

MUQADDAS KITOB



MUQADDAS KITOB

Toshkent

Muqaddas Kitob

Lug‘atdagi rasmlar
© *O‘BJ, 2006; Horace Knowles © The British & Foreign Bible Society 1954, 1967, 1972.*

Rasmlar va loyihalar
Muqaddas chodir; Shoh Sulaymon qurdirgan Ma’bad
© *O‘BJ, 2006.*

Hizqiyol vahiyda ko‘rgan Ma’badning loyihasi
© *UBS, 1999.*

Shoh Hirod qurdirgan Ma’bad loyihasi (Iso Masih davrida); Shoh Hirod qurdirgan Ma’bad (Iso Masih davrida)
Horace Knowles © The British & Foreign Bible Society 1954, 1967, 1972.

Xaritalar
Qadimiy davrdagi Yaqin Sharq; Isroil xalqi Misrdan chiqqandan keyin bosib o‘tgan yo‘l; Kan’on va uning atrofidagi yerlarning tabiiy xaritasi; O‘n ikki qabilaning hududi; Quddus (shohlar davrida); Isroil shohligi (Shoul, Dovud va Sulaymon davrida); Isroil va Yahudo shohliklari; Ossuriya shohligi; Falastin va uning atrofidagi yerlar (Iso Masih davrida); Quddus (Iso Masih davrida)
© *UBS, 1999.*

Bobil shohligi (Yahudo xalqi surgun qilingan davrda); Fors shohligi; Iskandar Zulqarnayn shohligi
© *B & H Publishing Group, 1998.*

Rim imperiyasi
© *Lion Hudson PLC, 2004.*

Pavlusning Xushxabar yoyish maqsadida qilgan birinchi safari; Pavlusning Xushxabar yoyish maqsadida qilgan ikkinchi safari; Pavlusning Xushxabar yoyish maqsadida qilgan uchinchi safari; Pavlusning Rimga olib ketilishi
© *UBS, 1994.*

Mazkur nashr Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti tomonidan O‘zbekiston Bibliya jamiyati bilan hamkorlikda tayyorlangan

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025

SO‘ZBOSHI

Mazkur Kitob ikki ming yildan oshiq davr mobaynida muqaddas deb e’tirof etilgan bitiklarning o‘zbek tiliga qilingan birinchi to‘liq tarjimasidir. Muqaddas Kitob Eski va Yangi Ahd bitiklaridan iborat[1]. Bular tarkibida o‘zbek kitobxonlariga yaxshi tanish bo‘lgan Tavrot, Zabur va Injil kitoblari ham bor.

1992 yili Yangi Ahd kitoblari o‘zbek tilida “Injil” nomi ostida ilk bor to‘liq holda chop etilgan edi. O‘sha nashr Eski Ahd tarkibidagi Ibtido va Zabur kitoblarini ham o‘z ichiga olgan. O‘shandan beri Eski Ahdning o‘n beshta kitobi o‘zbek tiliga tarjima qilinib, chop etildi. Shu jumladan, Ibtido va Zabur kitoblarining avvalgi nashri jiddiy tahrir qilingandan so‘ng qaytadan nashr qilindi. Ilk chop etilgan Injil kitobi ham jiddiy tahrir qilingandan keyin mazkur nashrga kiritildi.

Ushbu tarjima ustida mutaxassislar yigirma yildan ko‘proq mehnat qildilar. Nihoyat, Muqaddas Kitob to‘liq holda O‘zbekiston Respublikasining davlat tilida chop etildi. Mazkur tarjimaning to‘liq nashrini va ilova qilingan o‘quv manbalarini “www.ibt.org.ru/muqaddas-kitob/lotin” internet sahifasidan topishingiz mumkin. Bu elektron manbalarni komputer va uyali telefon kabi vositalarga ko‘chirib olib, ulardan foydalanishingiz mumkin.

Muqaddas Kitobda bayon qilingan aksariyat voqealar g‘arbiy Osiyoda bo‘lib o‘tgan bo‘lsa–da, undagi bebaho hikmatlar dunyo bo‘ylab yoyilib, ko‘plab xalqlar madaniyatini yanada boyitdi. Insoniyat tarixida Muqaddas Kitobdan ko‘ra ko‘p tarjima qilingan kitob yo‘q. Muqaddas Kitob jahon madaniyatining klassik merosi hisoblanadi. Mazkur nashr amalga oshirilayotgan paytda Muqaddas Kitob to‘liq holda dunyodagi 550 tilga tarjima qilingani ma’lum edi. Bundan tashqari, Muqaddas Kitobning ayrim parchalari taxminan 2300 tilga tarjima qilingan.

Butun jahonda yuksak madaniy meros sifatida qadrlanadigan mazkur Kitob Xudoning insoniyat bilan bo‘lgan munosabati tarixi haqida so‘z yuritadi. Shu bois Kitob asrlar davomida odamlarga Yaratuvchi bilan hamda bir–birlari bilan yarashish yo‘lini ko‘rsatib kelmoqda.

Tarjimonlar guruhi mazkur Kitobga jiddiy ilmiy ish sifatida yondashganlar. Ular Kitob tarjimasi yuzasidan chuqur tadqiqotlar olib borib, o‘z oldilariga qo‘yilgan vazifalarni nihoyatda diqqat–e’tibor bilan bajarganlar. Buni nafaqat matnning o‘zidan, balki kitobxonning bilimini oshirish uchun kitobga ilova qilingan qo‘shimcha ma’lumotlardan ham ko‘rishingiz mumkin. Shu bilan birga, tarjima uslubiga ham katta e’tibor berilgan, matn zamonaviy kitobxonlarimizga tushunarli bo‘lishi uchun tabiiy va sodda tilda tarjima qilingan.

Bu katta ishni amalga oshirish uchun yillar davomida ko‘plab odamlar o‘z vaqtlarini ayamay, tinimsiz mehnat qildilar. Nafaqat tarjimonlar, balki muharrirlar, bir qancha kitobxonlar o‘zbekcha matnning sifatli bo‘lishi uchun yordam berdilar. Nashriyot xodimlari ularning hammasiga o‘z minnatdorchiligini bildiradilar.

Biz Yaratganga shukronalar aytamiz va minnatdorchiligimizni bildiramiz. Muqaddas Kitobda bayon qilinishicha, Xudo har bir odamni O‘ziga chorlaydi, Xushxabarning mag‘zi

[1] To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun MUQADDAS KITOBGA KIRISH bo‘limiga qarang.

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

ham asosan ana shundan iborat. Iso Masih yer yuziga kelib, xochdagi o‘limi va o‘likdan tirilishi orqali bizga Xudo bilan yarashish imkonini berdi. Xudoning mangu sevgisi Iso orqali osmondan zaminga tushib keldi. Iso Xudoning fe’l–atvorini insoniy madaniyat va til orqali bizga namoyon qildi. Shuning uchun biz Xudoning qanday fe’l–atvorga ega ekanini bila olamiz. Umid qilamizki, Muqaddas Kitobning mazkur tarjimasi ko‘plab kitobxonlarimizni Xushxabar orqali Xudo bilan yarashtiradi. Tanho Xudoga hamdu sanolar bo‘lsin!

Nashriyot xodimlari

KITOBXONLAR UCHUN KO‘RSATMALAR

Kitobxonlarimiz Muqaddas Kitob matnini to‘liqroq tushunishlari va undan mukammal foydalana olishlari uchun mazkur nashrga quyidagi qo‘shimcha ma’lumotlar ilova qilingan.

“Kirish” qismlari

Muqaddas Kitob tarkibidagi har bir kitobga “Kirish” berilgan. “Kirish”larda kitobning tuzilishi va asosiy mavzusi bayon qilingan. Shuningdek, kitob muallifi haqida, muallif kitobni kim uchun va qachon yozgani, kitob yozilgan paytdagi vaziyat haqida ma’lumotlar berilgan.

Sarlavhalar

Kitobxon matnni yaxshi tushunishi uchun, Muqaddas Kitobning ko‘plab zamonaviy tarjimalarida sarlavhalar berilgan. Shu an’anaga ko‘ra, o‘zbekcha tarjimada ham sarlavhalar qo‘llanilgan. Sarlavha muayyan bir parchaning asosiy mavzusini ifodalaydi. Sarlavhalar qora harflar bilan, sarlavhachalar kursiv shaklida yozilgan. Asl matnda sarlavhalar yo‘q. Zabur kitobining aksariyat sanolari boshida kursiv shaklida qo‘shimcha ma’lumot berilgan. Zaburdagi bu kabi ma’lumotlar asl matn tarkibida bor (misol uchun, Zabur 10 va 33–sanolarga qarang).

Izohlar

Izohlar matnda yulduzcha (*) bilan belgilangan bo‘lib, yulduzcha izohlanadigan so‘z yoki iboradan keyin qo‘yilgan. Hamma izohlar Muqaddas Kitob oxirida ilova qilingan “Izohlar” bo‘limida berilgan. Har bir kitobning izohlari alohida berilgan bo‘lib, izohlar bilan ta’minlanayotgan kitob nomi ostida kelgan. Izohlarda qadimgi Yaqin Sharq va unga qo‘shni davlatlarning tarixiga, madaniyatiga, geografik joylashuviga, sanalarga va vaqt tizimiga oid ma’lumotlar kiritilgan, Muqaddas Kitobning muayyan matni mazmuniga mos keladigan ayrim oyatlar manzili[2] berilgan. Shuningdek, qadimgi o‘lchov birliklarining zamonaviy ekvivalentlari ham izohlangan. Izohlarda ayrim oyatlarning tarjimadagi muammolari tushuntirilgan bo‘lib, ba’zan oyatdagi so‘z yoki jumlaning boshqa varianti keltirilgan. Ayrim hollarda izoh qisqa berilgan bo‘lib, kitobxonni

[2] Ya’ni Muqaddas Kitob tarkibidagi kitobning nomi, bobi va oyati (misol uchun, Yuhanno 3:16). To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun mazkur bo‘limning BOB VA OYATLAR RAQAMLARI qismiga qarang.

lug‘atdan ma’lumot olishga undaydi.

Izohlar haqida to‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun “Izohlar” bo‘limining boshida berilgan “Izohlarning tuzilishi va ulardan foydalanish tartibi” qismiga qarang.

Lug‘at

Lug‘atni tuzishdan maqsad Muqaddas Kitobda bir necha bor takrorlanib keladigan muhim yoki notanish so‘zlar va iboralarning ma’nosini kitobxonga tushuntirib berishdir. Lug‘at tarkibidagi ba’zi so‘zlar va iboralar kitobxonlarimizga tanish bo‘lishi mumkin (misol uchun, AHD, MASIH, ABADIY HAYOT), biroq lug‘atda bu kabi so‘z va iboralarning Muqaddas Kitobdagi o‘ziga xos jihatlari kengroq ochib berilgan. Shuningdek, lug‘atda eski o‘zbek tiliga oid arxaik so‘zlar (misol uchun, KAN’ON, BANDARGOH) ham izohlangan. Ayrim so‘zlar va iboralar qadimgi Yaqin Sharq madaniyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, o‘zbek tili tarixida ishlatilmagani sababli, asl matndan transliteratsiya usulida o‘zbekcha tarjimaga ko‘chirilgan (misol uchun, FARZIY, FISIH BAYRAMI). Ayrim hollarda ma’lum bir so‘z yoki iboraning ma’nosi izohda qisqa berilgan, lug‘atda esa batafsil tushuntirilgan.

Ko‘pincha lug‘atda biron so‘z yoki iboraning ma’nosi bilan bir qatorda, o‘sha davrga xos tarixiy va madaniy jarayonga oid ma’lumotlar ham berilgan. Bu so‘zlar va iboralarga berilgan sharhlardan keyin keladigan izohlarda Muqaddas Kitobdagi oyatlarning manzili ko‘rsatilgan. Bu oyatlar kitobxonga Muqaddas Kitobda bayon etilgan ta’limotlarni chuqurroq o‘rganishga yordam beradi. Kitobxon ayrim buyumlarning tuzilishi va shaklini ko‘z oldiga keltirib, tasavvur qila olishi uchun, lug‘atda o‘sha buyumlarning rasmlari keltirilgan.

Rasmlar va loyihalar

Isroil xalqi Muso davridan boshlab bir necha asr davomida Xudoga Muqaddas chodirda sajda qilib kelgan. Shoh Sulaymon taxtga o‘tirgandan keyin esa ular Xudoga Quddusdagi Ma’badda sajda qiladigan bo‘ldilar[3]. Bu tabarruk inshootlar asrlar davomida qanday ko‘rinishlarda bo‘lganini kitobxonlarimiz tasavvur qila olishlari uchun, mazkur nashrga o‘sha inshootlarning rasmlari va loyihalari ilova qilingan. Bu rasmlar va loyihalar Muqaddas Kitobni chuqur tadqiq etgan olimlarning ilmiy xulosalariga asoslangan.

Eski Ahd va Yangi Ahd xronologiyasi jadvallari

Eski Ahd va Yangi Ahd xronologiyasi jadvallarida Muqaddas Kitob tarixida yuz bergan muhim voqealar va ularning sanalari haqida ma’lumot berilgan. Jadvallarda shohlar, payg‘ambarlar va muhim ahamiyatga ega bo‘lgan boshqa shaxslar yashagan davrlar keltirilgan. Shuningdek, Yangi Ahd jadvalida kitoblar taxminan qachon yozilgani haqida ma’lumot berilgan. Qadimgi davr tarixidagi ayrim voqealarning yuz bergan aniq vaqtini belgilab olish nihoyatda murakkabdir. Olimlar bu borada bir to‘xtamga kela olmaganlari bois, jadvalda o‘sha voqealarning taxminiy sanalari ko‘rsatilgan.

[3] To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi MUQADDAS CHODIR iborasiga va MA’BAD so‘ziga qarang.

Eski Ahddagi va Yangi Ahddagi o‘xshash parchalar jadvallari

Ayrim hollarda bir kitobdagi[4] ba’zi oyatlarning mazmuni aynan bitta kitobning o‘zida yoki boshqa kitobda takrorlanadi. Bunday takrorlar, asosan, 2-4 Shohlar kitoblarida, 1-2 Solnomalar kitoblarida va to‘rtta Xushxabarda uchraydi. Kitobxonlarimizga o‘xshash parchalarni topishga yordam berish maqsadida, Eski Ahd va Yangi Ahd kitoblari uchun maxsus jadvallar ishlab chiqildi. Bu jadvallarda o‘xshash parchalarning asosiy mavzusi ifodalangan va o‘sha parchalarning Muqaddas Kitobdagi manzili keltirilgan. Jadvallarni tuzishdan yana bir maqsad kitobxonga 2-4 Shohlar, 1-2 Solnomalar kitoblari va to‘rtta Xushxabarlarni yaxshiroq qiyoslash imkonini berishdir. Shuning uchun ba’zi voqealar mana shu kitoblarning faqatgina bittasida yoritilgan bo‘lsa–da, o‘sha voqeaning manzili jadvalga kiritilgan.

Xaritalar

Mazkur nashrda chop etilgan o‘n sakkizta xarita ikki ming yillik tarixiy davrni — Ibrohim payg‘ambar davridan tortib to milodiy birinchi asrgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Xaritalarda ko‘rsatilgan joy nomlari Muqaddas Kitobdagi muhim voqealar yoki o‘sha voqealarga bevosita ta’sir ko‘rsatgan tarixiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq.

TARJIMA UCHUN ASOS BO‘LGAN MATNLAR

Muqaddas Kitob aslida ibroniy, oramiy va yunon tillarida yozilgan va o‘zbek tiliga o‘sha tillardan tarjima qilingan. Muqaddas Kitobning ko‘plab qo‘lyozmalari, shuningdek, qadimda boshqa tillarga qilingan tarjimalar qo‘lyozmalari bugungi kungacha saqlanib kelmoqda. Olimlar Muqaddas Kitobning asl matnidagi ba’zi so‘zlarning ma’nosini to‘liq aniqlash uchun bu qo‘lyozmalarni bir–biriga qiyoslab o‘rganadilar. Bunday ilmiy tadqiqotlar natijasida shu narsa o‘z isbotini topdiki, Muqaddas Kitobning asl matni asrlar davomida sadoqat bilan asrab kelingan. Shuning uchun biz qat’iy ishonch bilan ayta olamizki, mazkur tarjima uchun asos bo‘lgan matn qo‘lyozmalarning asl matnidan deyarli farq qilmaydi.

Bu qo‘lyozmalar dunyoning turli muzey va kutubxonalarida saqlanib kelmoqda. Eng qadimgi qo‘lyozmalardan biri Ishayo payg‘ambar kitobi bo‘lib, taxminan miloddan oldingi 100 yilda ko‘chirilgan. Bu bitikdan va diqqatga sazovor yana to‘rtta qo‘lyozmadan olingan parchalarning fotonusxasi kitob oxirida “Muqaddas Kitob qo‘lyozmalarining fotonusxalari” degan qismda keltirilgan. Ushbu qadimiy qo‘lyozmalar haqida to‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi IBRONIYCHA MATN va YUNONCHA MATN iboralariga qarang.

TARJIMA JARAYONI, UNGA YONDASHISH VA QO‘LLANILGAN USUL

Tarjima jarayonida birinchi qadam tarjimonlar asl matnning ma’nosini imkon qadar to‘liq va batafsil tushunib olishlaridan iborat. Muqaddas Kitob nihoyatda qadimgi matn bo‘lgani sababli, bu vazifani bajarish oson kechmaydi. Biroq ikki ming yildan oshiq davr mobaynida olimlarning tadqiqotlari natijasida yig‘ilgan ma’lumotlar yordamida buni amalga oshirsa bo‘ladi. Tarjimonlarimiz ish jarayonida Muqaddas Kitobga yozilgan turli

[4] Ya’ni Muqaddas Kitob tarkibidagi bir kitob. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun mazkur bo‘limning BOB VA OYATLAR RAQAMLARI qismiga qarang.

sharhlardan va boshqa tillarga qilingan tarjimalardan foydalanganlar. Bunda ularga ibroniy, oramiy va yunon tillari mutaxassislari yordam berganlar. Tarjimonlarimiz Muqaddas Kitobdagi voqealar yuz bergan joylarni ziyorat qilib kelganlar. Ular Muqaddas Kitobning asl matni mazmunini qadimda odamlar qanday tushunganlarini to‘liq anglash maqsadida o‘sha yerlarning tarixini, madaniyatini va tabiatini o‘rganganlar.

Holbuki, tarjima yaxshi chiqishi uchun asl matnning ma’nosini to‘liq tushunishning o‘zi kifoya emas. Mazkur tarjimaning maqsadi asl matn g‘oyalarini o‘zbek kitobxoniga to‘g‘ri, tabiiy va ravon tarzda yetkazishdan iboratdir. Agar kitobxon matn mazmunini yaxshi tushunmasa, tarjima yaxshi qilingan, deb aytib bo‘lmaydi. Shu sababdan tarjimonlarimiz asl matn mazmunini o‘rganish bilan bir qatorda, tarjima asoslarini hamda o‘zbek tili grammatikasi, sintaksisi, stilistikasi va tilning o‘ziga xos boshqa jihatlarini sinchiklab o‘rganganlar. Ularning maqsadi tarjimaning o‘zbekcha matnini keng ommaga tushunarli, sodda, ravon va adabiy tilda yetkazish edi.

Kitobxon asl matn ma’nosini tushuna olishi uchun, tarjimonlar matnni so‘zma–so‘z emas, mazmuniga ko‘ra tarjima qilganlar. Anglashilmovchilik paydo bo‘lmasligi uchun, ayrim izohlarda asl matndagi ibora yoki jumlaning so‘zma–so‘z tarjimasi keltirilgan. Ko‘pincha Muqaddas Kitobda bayon qilingan voqealarda kitob muallifi tinglovchining biron muhim hodisa borasidagi bilimiga tayanib, ba’zi ma’lumotlarni tushirib qoldirgan. Masalan, asl matnda joy nomi berilganda, bu nom shaharga ishora qilyaptimi yoki yurtgami, aniq yozilmagan. Zamonaviy o‘zbek kitobxoni bunday parchalarning ma’nosini to‘liq tushunishi uchun, tarjimonlar matnda nazarda tutilgan ma’noni ochiq bayon qilganlar yoki bunday o‘rinlarga izoh berganlar. Bunday usulda tarjima qilingan matn keng ommaga tushunarli tarzda yetib boradi. Kitobxon matnni o‘zi uchun ichida o‘qisa ham, ovoz chiqarib tinglovchilarga o‘qib bersa ham ma’nosini osonlikcha tushunib oladi.

Tarjimaning muvaffaqiyati qo‘yilgan maqsadga qay darajada erishilganiga qarab baholanadi. O‘zbek tiliga qilingan mazkur tarjima qo‘yilgan maqsadga muvofiq har tomonlama, bir necha bosqichdan iborat bo‘lgan batafsil tekshiruv jarayonlaridan o‘tgan. Tarjima matni o‘zbek tilining yuksak malakali mutaxassislari tomonidan ham, O‘zbekistonning turli viloyatlaridan bo‘lgan har xil kasb egalaridan iborat erkak va ayollar tomonidan ham tekshirilgan. Turli toifadagi bu odamlar tarjima qilingan matnni o‘qib, o‘z fikrlarini bildirganlar, matnni yaxshilash maqsadida qaysi so‘zni qay o‘rinda qo‘llash maqsadga muvofiqligiga oid takliflar berganlar. Mazkur tekshiruv usullari natijasida o‘zbek tiliga tarjima qilingan matn butun o‘zbek xalqiga tushunarli sodda adabiy tilda yuzaga kelgan.

Ma’lumki, bir tildagi g‘oyani boshqa tilga bir necha yo‘l bilan, turli iboralardan foydalangan holda tarjima qilish mumkin. Shu sababdan, asl matn turli tillarga tarjima qilinganda, tarjimalar bir–biridan biroz farq qilishi tabiiy holdir. Tarjima usulidan farqli o‘laroq, asl matnning mazmuni ham ayrim tarjimalarda bir–biridan farq qiladi. Bu muammoni hisobga olgan holda, tarjimonlar ba’zan izohlarda mazmunan boshqacha tarjima qilingan oyatlarning variantini ham berib o‘tganlar. Matnda esa tarjimonlarning fikricha kontekstga to‘g‘ri keladigan, ularning tushunchasi bo‘yicha muallif nazarda tutgan ma’no berilgan.

TARJIMADAGI AYRIM QIYINCHILIKLAR

Xudoning nomlarini tarjima qilish

Muqaddas Kitobni tarjima qilish jarayonida uchraydigan qiyinchiliklardan biri asl matndagi Xudoning nomlarini to‘g‘ri tarjima qilishdir. Tarjimonlar har bir nomni mazmunan to‘g‘ri va izchillik bilan tarjima qilishga harakat qildilar. Ko‘pincha matnda Xudoning ikkita, hatto uchta nomi birin–ketin ishlatilgan. Bunday holda tarjimonlar bu nomlarni o‘zbek tilida tabiiy eshitiladigan nomlar bilan tarjima qildilar. Xudoning nomlari haqida lug‘atda batafsil ma’lumot berilib, ularning ibroniycha yoki yunoncha ekvivalentlari ham ko‘rsatilgan (lug‘atdagi XUDONING NOMLARI iborasiga qarang).

She’riy va apokaliptik[5] janrlardagi matnlarning tarjimasi

Muqaddas Kitob matni turli adabiy janrlardan tashkil topgan. Muqaddas Kitob tarkibidagi Zabur kitobi to‘lig‘icha va hikmat janridagi kitoblarning aksariyat qismi she’rlardan iborat. Eski Ahddagi payg‘ambarlar bitiklarining aksariyati ham she’riy usulda yozilgan.

Ibroniy she’riyatida majoziy timsollar, so‘z o‘yinlari, ohangdosh so‘zlar, qofiya va misralardagi bo‘g‘inlar soni bir maromda ishlatilgan bo‘lib, tilning naqadar boy ekanligidan dalolat beradi. Ibroniy she’riyatining diqqatga sazovor bir xususiyati parallelizmdir. Odatda bu usul biror g‘oyani tasdiqlash, unga urg‘u berish yoki qo‘shimcha ma’no ifodalash maqsadida ishlatiladi. Parallelizm hosil qilishda mazmunan yaqin bo‘lgan gaplar juft misralarda birin–ketin, turli so‘zlar bilan takrorlanadi. Misol uchun,

> “Ey shohlar! Endi aql bilan ish qiling.
> Ey zamin hukmdorlari! Ogoh bo‘ling.” (Zabur 2:10)

She’riy parchalar o‘zbek tiliga tarjima qilinganda, tarjimonlar, birinchi navbatda, matn mazmunini kitobxonga to‘g‘ri va sodda tilda yetkazishga harakat qilganlar. Tarjimonlar imkon qadar, ibroniy she’riyatining xususiyatlarini saqlashga uringanlar. She’rlar bandlarga bo‘lingan. Muqaddas Kitobning asl matnidagi she’rlar o‘zbek tilidagi she’rlardan usuli va tuzilishi jihatidan farq qilsa–da, kitobxonlarimiz tarjima qilingan bu she’rlarning mazmunidan va o‘ziga xos go‘zalligidan zavq oladilar, degan umiddamiz.

Bir tildagi she’rni boshqa tilga o‘girish ancha mushkul. Bu ayniqsa majoziy ma’nodagi iboralarga taalluqlidir. Har bir til va madaniyatning o‘ziga xos ramziy obrazlari hamda majoziy ma’noda ishlatiladigan so‘z–iboralari bor. Ibroniycha matndagi bunday iboralar va obrazlar o‘zbek tiliga tarjima qilingach, ma’nosi mavhum bo‘lgan hollarda, tarjimonlar quyidagicha yo‘l tutganlar: majoziy obrazlardan chekinib, iboraning ma’nosini darak gap bilan ifodalaganlar. Ayrim hollarda esa asl matndagi ma’noni ifodalaydigan o‘zbek tilidagi boshqa bir majoziy iboradan foydalanganlar. Ba’zi holatlarda esa matnda ibroniycha iborani va obrazni saqlab, ma’nosini izohda ochganlar.

Muqaddas Kitobning apokaliptik janrdagi parchalari (misol uchun, Doniyor

[5] ya’ni oxirzamonga oid bashoratlar va vahiylar

kitobining ikkinchi qismi va Vahiy kitobi) ramzlarga nihoyatda boy bo‘lib, majoziy ma’noni ifodalaydi. Aksariyat hollarda, bu ramzlar o‘zbekcha tarjimada ham saqlangan. Ba’zi ramziy obrazlarga izohlar berilgan bo‘lib, ma’nosi ochilgan, biroq ko‘p hollarda izohlar berilmagan. Chunki apokaliptik adabiyotdagi ramzlar ma’nosi xususida olimlarning qarashlari turlichadir. Muqaddas Kitobdagi bunday parchalarning ma’nosini yanada to‘liq tushunmoqchi bo‘lgan kitobxonlarimiz Muqaddas Kitob bo‘yicha tuzilgan sharhlarga, ya’ni kommentariylarga murojaat qilishlari lozim.

Madaniy tushunchalarga xos terminlarni tarjima qilish

Yuqorida aytib o‘tilganday, mazkur tarjimaning maqsadi Muqaddas Kitob matnini o‘zbek kitobxoniga sodda va ravon tilda yetkazishdan iboratdir. Madaniy tushunchalarga xos terminlar tarjimasida ham tarjimonlarimiz aynan shunday maqsadni ko‘zladilar. Ular qadimgi matn tarjimasida zamonaviy so‘zlarni ishlatmagan holda, bu kabi terminlarni tushunarli yo‘l bilan yetkazishga harakat qildilar. Shu sababdan asl matnda qo‘llangan og‘irlik, hajm va uzunlik kabi o‘lchov terminlari, shuningdek, pul birliklari o‘zbek tilida qadimdan mavjud bo‘lgan terminlar bilan tarjima qilindi. Asl matndagi ibroniycha va yunoncha terminlar izohlarda zamonaviy o‘lchovni ifodalaydigan so‘zlar bilan tushuntirildi. Biroq ibroniy kalendaridagi oylarga kelganda, asl matndagi nomlar saqlab qolindi. Oylarning qadimgi nomlariga izohlar berilgan bo‘lib, hozirgi kalendar bo‘yicha qaysi oyga to‘g‘ri kelishi tushuntirildi.

Har xil asbob–uskunalarni, masalan, musiqa asboblarini, dehqonchilikda foydalaniladigan ish qurollarini va hokazolarni tarjima qilishda ularning o‘zbek tilidagi ekvivalenti ishlatilgan. Ammo Muqaddas Kitob olimlari bu qadimgi asboblarning ayrimlari aniq qanday ko‘rinishda bo‘lgani yoki qay tarzda ishlatilgani haqida to‘liq ma’lumotga ega emaslar. Shu bois tarjimada kontekstga mos ravishda, o‘zbek kitobxoniga tanish bo‘lgan terminlar tanlangan bo‘lib, izohlarda qo‘shimcha ma’lumot berildi. Lug‘atda ba’zi buyumlar haqida batafsil ma’lumot berilgan bo‘lib, ularning rasmlari keltirilgan.

Joy nomlari

Ko‘pincha Muqaddas Kitobning asl matnida joy nomlari berilganda, o‘sha joylar shahar, ma’lum bir hudud yoki yurt ekanligi haqidagi ma’lumotlar ochiq yozilmagan. Mazkur tarjima o‘zbek kitobxoniga tushunarli bo‘lishi uchun, tarjimonlarimiz ko‘p o‘rinlarda bu kabi joylar haqidagi ma’lumotlarni ochib berdilar. Ko‘pincha bunday ma’lumot muayyan bir nom birorta parchada ilk bor uchraganda berildi. Misol uchun, asl matnda: “Hududning chegarasi Kavul, Abdo‘n, Rexob, Xammon, Kanaxdan o‘tib, Buyuk Sidongacha yetadi” deb yozilgan bo‘lsa, o‘zbekcha tarjimada bu ma’lumot quyidagicha berilgan: “Hududning chegarasi Kavul, Abdo‘n, Rexob, Xammon, Kanax shaharlaridan o‘tib, Buyuk Sidon shahrigacha yetadi” (Yoshua 19:27-28).

Yangi Ahdda Eski Ahddan keltirilgan iqtiboslar[6]

Ma’lumki, Yangi Ahd mualliflari Eski Ahddan iqtiboslar keltirganlar. Mazkur tarjimada iqtiboslarga izohlar berilib, iqtibos Eski Ahdning qaysi kitobidagi oyatlardan olingani ko‘rsatildi. Yangi Ahdda keltirilgan ba’zi iqtiboslar Eski Ahddagi parchadan

biroz farq qiladi. Buning bir nechta sababi bo‘lishi mumkin. Birinchidan, Yangi Ahddagi parcha o‘zbek tiliga Eski Ahdning ibroniycha matnidan emas, balki Yangi Ahdning yunoncha matnidan tarjima qilingani sabab bo‘lishi mumkin. Bunday holda oyatlardagi farq ibroniy va yunon tillarining xususiyatlari va tarjima uslubiga bog‘liq, deb qaraladi. Ikkinchidan, Yangi Ahd mualliflari iqtibosni Eski Ahdning ibroniycha matnidan emas, balki yunon tilidagi qadimiy tarjimasidan[7] keltirgani sabab bo‘lishi mumkin. Ayrim hollarda yunoncha tarjima mazmun jihatdan ibroniycha matndan biroz farq qiladi. Va nihoyat, Yangi Ahd mualliflari Eski Ahddan iqtibosni so‘zma–so‘z keltirmay, kerakli qismlarini olib, matn ma’nosiga mos ravishda ishlatgan bo‘lishlari ham mumkin.

BOB VA OYATLAR RAQAMLARI

Muqaddas Kitob jami 66 ta muqaddas bitikdan iborat bo‘lib, bu bitiklar “kitoblar” deb yuritiladi. Muqaddas Kitob tarkibidagi barcha kitoblar boblar va oyatlarga bo‘lingan. Asl matnda boblar va oyatlar bo‘lmagan, bular keyinchalik kotiblar tomonidan kitobxon tushunishi uchun, yordam tariqasida qo‘shilgan. Beshta qisqa kitob: Obodiyo, Filimo‘n, 2 Yuhanno, 3 Yuhanno va Yahudo kitoblari boblarga bo‘linmasdan, faqat oyatlarga bo‘lingan.

“Izohlar” va “Lug‘at” qismlarida Muqaddas Kitobning ko‘plab oyatlari manzillari berilgan. Oyat manzili quyidagicha belgilangan: kitob nomi, bob raqami, ikki nuqta (:) va oyat raqami. Masalan, “Yuhanno 3:16” Havoriy Yuhanno bayon etgan muqaddas Xushxabarning uchinchi bobi o‘n oltinchi oyatiga ishora qiladi. Bob haqida so‘z ketganda esa faqat kitob nomi, bob raqami va “–bob” so‘zi yozildi (masalan, Hakamlar 18–bob). Muqaddas Kitob tarkibidagi boblarga bo‘linmagan beshta qisqa kitobning faqat oyat raqamlari berildi, xolos. Masalan, “2 Yuhanno 6” Havoriy Yuhannoning ikkinchi maktubi oltinchi oyatiga ishora qiladi. Agar ikkita oyat raqami o‘rtasiga chiziqcha qo‘yilgan bo‘lsa (masalan, 2:4-8), demak, har ikki oyat orasidagi barcha oyatlar nazarda tutilgan bo‘ladi.

Ayrim o‘rinlarda matn o‘zbek tilida ravon o‘qilishini, tushunarli bo‘lishini va voqealar izchilligini ta’minlash maqsadida bir nechta oyat, asosan ikki yoki uchta oyat birlashtirilgan. Buning natijasida oyatlar tartibi o‘zgargan, ya’ni keyinda turgan oyat bir–ikki oyatdan oldinga o‘tkazilgan. Misol uchun, Ibtido 2:2-3 ga va Hizqiyol 1:1-3 ga qarang.

Muqaddas Kitob matnini raqamlashning bir nechta an’anasi mavjud. Shu bois Muqaddas Kitobdagi boblarning va oyatlarning raqamlanishi hamma tarjimalarda ham bir–biriga aynan mos tushavermaydi. Buni ayniqsa Zabur kitobida yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Misol uchun, o‘zbek va rus tillaridagi 39 oyatdan iborat 9–sano inglizcha tarjimada 9-10–sanolarni tashkil qiladi. O‘zbekcha tarjimada mazkur mintaqada qo‘llaniladigan usuldan foydalanildi.

BOSH HARFLARNING QO‘LLANISHIGA OID TUSHUNTIRISHLAR

O‘zbekcha tarjimada biron odamning qaysi yurt, shahar yoki qishloqdan ekanini bildiruvchi “lik” qo‘shimchasi ishlatilgan barcha otlar bosh harf bilan yozildi (masalan,

---

[6] Muallif yoki so‘zlovchi boshqa bir matndan keltirgan parcha, gap yoki ibora.
[7] To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi IBRONIYCHA MATN iborasi ostida berilgan QADIMIY TARJIMALAR iborasiga qarang.

Kan’onlik, Mo‘ablik). O‘zbek tilining grammatik qoidalariga ko‘ra, bu so‘zlar o‘zbek tilida kichik harf bilan yoziladi. Ammo o‘zbek kitobxoniga Muqaddas Kitobdagi notanish joylarning nomlari to‘liq tushunarli bo‘lishi uchun, mazkur tarjimada ular bosh harf bilan yozildi.

Muqaddas Kitobning boshqa tillarga qilingan tarjimalarida bo‘lgani singari, mazkur nashrda ham Xudoni, Iso Masihni va Xudoning Ruhini bildiradigan hamma so‘zlar va olmoshlar bosh harf bilan yozildi. Muqaddas Kitobda qo‘llangan muayyan maxsus terminlar va so‘zlar ham bosh harf bilan yozildi (masalan, Muqaddas chodir, Ma’bad, Ahd sandig‘i, Xudoning Shohligi, Xushxabar).

ISMLAR VA JOY NOMLARINING YOZILISHI

Mazkur tarjimadagi ismlar va joy nomlari asl matndan olingan bo‘lib, o‘zbek tilida talaffuz qilinishi osonroq bo‘lishi uchun biroz soddalashtirilgan. O‘zbek kitobxoniga boshqa tarixiy va adabiy manbalardan ma’lum bo‘lgan ismlar va joy nomlari bundan mustasnodir (masalan, Ibrohim, Yusuf, Muso, Dovud, Sulaymon, Iso Masih, Misr, Quddus va boshqalar). Ayrim ibroniycha va yunoncha ismlarning hamda joy nomlarining talaffuzi o‘zbekchadagi yoki ruschadagi so‘zlarga ohangdosh bo‘lgani bois, kitobxon noto‘g‘ri tasavvurga bormasin deb, ularning shakli biroz o‘zgartirildi. Misol uchun, ibroniycha matndagi Orom yurti o‘zbek tiliga Oram yurti deb tarjima qilindi, Ezra kitobidagi Mordaxay degan ism esa o‘zbekchada Mardoxay deb yozildi, chunki bu ismning birinchi qismi rus tilida “morda”, ya’ni “xunuk yuz” degan ma’noni anglatadi.

KO‘CHIRMA GAPDA TINISH BELGILARIGA OID TUSHUNTIRISHLAR

Mazkur tarjimada dialogdagi ko‘chirma gaplar tire bilan ajratildi. So‘zlovchining gapi abzats oxirida tugaydi. So‘zlovchining gapi ancha uzun bo‘lganda, ayniqsa, bir abzatsdan oshganda, ko‘chirma gap qo‘shtirnoqqa (“…”) olindi. Ba’zan ko‘chirma gap bir nechta parchani, hatto bir nechta bobni qamragani bois, ba’zi sarlavhalar va bob raqamlari ko‘chirma gap tarkibiga kirib qolgan. Bunday hollarda, ko‘chirma gap qanchalar uzun bo‘lmasin, qo‘shtirnoq ko‘chirma gapning boshida ochilib, oxirida yopildi (misol uchun, Ayub 23:1-24:25 ga qarang).

Muqaddas Kitobning ayrim parchalari nihoyatda murakkab bo‘lib, ko‘chirma gapning ichida ko‘chirma gap kelgan holatlar bor. Bunday holat, ayniqsa, payg‘ambarlar bitiklarida ko‘p uchraydi. Bunday parchalarni zamonaviy punktuatsiya qoidalari bilan belgilash qiyinchilik keltirib chiqarishi tabiiy. Shu bois, mazkur tarjimada quyidagi qoidalar qo‘llanildi:

Ko‘chirma gap “…” bilan ajratildi.
Ko‘chirma gap ichidagi ko‘chirma gap «…» bilan ajratildi.
Ko‘chirma gap ichidagi ko‘chirma gap tarkibida yana ko‘chirma gap kelganda ‘…’ bilan ajratildi.

Ba’zan so‘zlovchining gapi bir abzatsdan uzun bo‘lmasa, ko‘chirma gap ichidagi ko‘chirma gap tire (—) bilan ajratildi. Bunday holda so‘zlovchining gapi abzats oxirida tugaydi.

MUQADDAS KITOBGA KIRISH

Muqaddas Kitob jami 66 ta muqaddas bitikdan iborat bo‘lib, bu bitiklar “kitoblar” deb yuritiladi. Shu sababdan mazkur Muqaddas Kitob ko‘p tillarda “Bibliya” deb nomlanadi. Bu nom yunoncha bo‘lib, “o‘rama qog‘ozlar”, ya’ni “kitoblar” ma’nosini ifodalaydi. Ushbu 66 ta kitob taxminan 1500 yil mobaynida 40 nafar muallif tomonidan yozilgan. Mazkur kitoblar turli adabiy janrlardan, chunonchi, tarixiy voqea, nasabnoma, she’r, hamdu sano, marsiya, bashorat, tanbehu nasihat, hikmatlar va maktublardan iborat.

KITOBLARNING NOMLARI

Muqaddas Kitob tarkibidagi ayrim kitoblar o‘sha kitobni yozgan muallifning ismi bilan yoki uning aksariyat qismini yozgan odamning nomi bilan atalgan. Birinchisiga “Xabaqquq payg‘ambarning kitobi”, ikkinchisiga “Sulaymon payg‘ambarning hikmatlari” misol bo‘la oladi.

Ba’zi kitoblar bosh qahramonning ismi bilan nomlangan. Misol uchun, “Rut kitobi” va “Ayub payg‘ambar kitobi”.

Yangi Ahd tarkibidagi aksariyat kitoblar aslida maktublar bo‘lib, ma’lum bir kishiga yoki bir guruh odamlarga yozilgan. Bunday hollarda maktub muallifning nomi bilan yoki maktub yo‘llangan guruhning yoxud kishining nomi bilan ataladi. Masalan, “Yoqubning maktubi”, “Pavlusning Rimliklarga maktubi”, “Pavlusning Filimo‘nga maktubi”.

Muqaddas Kitobdagi 66 kitobdan ba’zilari bu qoidalardan mustasno tarzda nomlangan. Ularning nomlanishi sabablari o‘sha kitoblarning kirish qismlarida tushuntirilgan (misol uchun, Chiqish kitobi).

Ba’zi kitoblar bir xil nomlangan bo‘lib, ular faqat raqamlariga ko‘ra farq qiladi. Raqam kitob nomining qisqartirilgan variantidan oldin qo‘yiladi. Masalan, “4 Shohlar” qadimgi Isroilda hukmronlik qilgan shohlar haqidagi to‘rtinchi kitobni, “1 Yuhanno” havoriy Yuhanno yozgan birinchi maktubni bildiradi.

KITOBLARNING JOYLASHISH TARTIBI

Muqaddas Kitob tarkibidagi 66 ta kitob xronologik tarzda joylashmagan. Bu kitoblarni tartibga solishning bir nechta an’anasi mavjud. O‘zbekcha tarjima mazkur mintaqada qo‘llanilgan tartibga rioya qilgan.

Iso Masih yashagan davrdan oldin yozilgan kitoblar “Eski Ahd” deb, U yashagandan keyin yozilgan kitoblar “Yangi Ahd” deb ajratiladi. Eski Ahdning asosiy mavzusi Xudoning Isroil xalqi bilan bo‘lgan munosabatidir. Bu munosabat Xudoning Muso orqali Isroil xalqi bilan tuzgan ahdiga asoslangan. Yangi Ahdning asosiy mavzusi Iso O‘zini qurbon qilgani va buning natijasida dunyoni Xudo bilan yarashtirganidir. Endi har bir inson, millatidan qat’i nazar, Iso Masihga ishonsa va gunohlaridan tavba qilsa, uning gunohlari kechiriladi, bu inson Xudoning xalqiga tegishli bo‘ladi. Xudo O‘z xalqi bilan Iso Masih orqali ulug‘roq va a’loroq va’dalarga asoslangan yangi ahd tuzdi. Shu sababga ko‘ra, Muqaddas Kitob ikki qismga bo‘linib, “Eski Ahd” va “Yangi Ahd” deb ataladi.

ESKI AHD KITOBLARINING QISQACHA TAVSIFI

Eski Ahd 39 ta kitobdan iborat bo‘lib, bu kitoblar miloddan oldingi o‘n beshinchi va

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

beshinchi asrlar oralig‘ida yozilgan. Bu kitoblarning qariyb hammasi qadimgi ibroniy tilida yozilgan. Faqatgina Ezra va Doniyor kitoblaridagi ayrim parchalar oramiy tilida yozilgan, xolos.

Tavrot

Eski Ahdning dastlabki beshta kitobi (Ibtido kitobidan Qonunlar kitobigacha) Muso payg‘ambar tomonidan yozilgan. Bu majmua o‘zbek tilida “Tavrot” deb ataladi. Ibtido kitobi Xudo olamni va ilk odamlarni — Odam Ato bilan Momo Havoni yaratgani haqidagi voqealar bilan boshlanadi. So‘ng insoniyat gunoh qilgani va Nuh payg‘ambar davrida Xudo butun yer yuziga to‘fon yuborib, odamzodga jazo bergani haqida bayon qilinadi. Kitob davomida hikoya qilinishicha, Xudo Ibrohim payg‘ambarni da’vat qiladi, uni Kan’on yurtiga boshlab boradi. Ibrohim befarzand bo‘lishiga qaramay, Xudo uni buyuk xalqning otasi qilishga va’da berib, butun yer yuzidagi xalqlar u orqali baraka topishini aytadi. Xudo O‘z va’dasini bajargani Ibrohimning o‘g‘li Is’hoq, nabirasi Yoqub va chevarasi Yusuf haqidagi hikoyalardan ko‘rishimiz mumkin. Xudo Yusuf orqali Yoqubni va uning xonadonini Kan’on yurtidagi qahatchilikdan asrab, Misrga olib boradi. U yerda Ibrohimning avlodi nihoyatda ko‘payib, Isroil xalqi degan nom bilan taniladi. Isroil xalqi Misrda 400 yil qolib ketadi.

Tavrotning ikkinchi kitobi “Chiqish” deb nomlangan bo‘lib, Yoqub naslining o‘n ikki qabilasi, ya’ni Isroil xalqi Misrda qullik zulmidan azob chekayotgani haqidagi hikoya bilan boshlanadi. Xudo Muso payg‘ambar orqali Isroil xalqini mo‘jizalar orqali ozod qilib, Misrdan olib chiqadi. Bu voqea taxminan miloddan oldingi 1440 yilda yuz bergan edi. Isroil xalqi Misrdan chiqqandan keyin sahroda qirq yil davomida boshidan kechirgan voqealar Tavrotning qolgan uchta kitobida — “Levilar”, “Sahroda” va “Qonunlar”da hikoya qilingan. O‘sha davrda Xudo Muso payg‘ambar orqali Isroil xalqi bilan ahd tuzadi. O‘sha ahdda Xudoning amrlari va qonunlari batafsil bayon qilingan. Bu amrlarga va qonunlarga rioya qilgan insonlarga Xudo: “Men sizlarni O‘zimning xalqim qilaman, sizlarning Xudoyingiz bo‘laman”, deb alohida va’da bergan. Ammo bu amrlarni va qonunlarni buzgan odamlarni Xudo jazolagan. Xudoning O‘z xalqi Isroil bilan bo‘lgan munosabati mana shu ahdga asoslangani bois, Eski Ahdda bayon qilingan aksariyat voqealar va Isroil xalqining tarixi shu munosabatlar haqida hikoya qiladi.

Isroil xalqi tarixi

Muqaddas Kitob tarkibida Tavrot kitoblaridan keyin o‘rin olgan 12 ta kitob (Yoshua kitobidan Ester kitobigacha) Isroil xalqi tarixining taxminan 1000 yillik davrini qamrab oladi. Bu davrda Isroil xalqi Kan’on yurtini zabt etib, o‘sha yerlarga o‘rnashadi. Taxminan 350 yil davomida Isroil xalqining o‘n ikki qabilasini Xudo tomonidan tayinlangan hakamlar boshqaradi. Hakamlar davridan keyin Isroil xalqining o‘n ikki qabilasi Isroil shohligini barpo qilib, Shoulni shoh qilib taxtga o‘tirg‘izadi. Dovud Isroilning ikkinchi shohi bo‘ladi. Dovud vafot etgandan keyin uning o‘g‘li Sulaymon taxtga chiqib, Quddusda Xudoga atab Ma’bad quradi. Sulaymonning o‘g‘li Raxabom hukmronligi davrida Isroil shohligi ikkiga bo‘linib, shimolda Isroil shohligi va janubda Yahudo shohligi paydo bo‘ladi. Ikkala shohlikning aholisi va hukmdorlari oldiga Xudo O‘z payg‘ambarlarini yuboradi. Ular aholini, butlarga sig‘inmanglar, Xudoga yuz buringlar, Uning amrlarini bajaringlar, deb undaydi. Ammo xalq payg‘ambarlarning

gaplariga quloq solmaydi. Oqibatda Xudo ikkala shohlik aholisini itoatsizligi uchun jazolab, dushmanlar qo‘liga topshiradi. Dushmanlar Isroil va Yahudo xalqlarini asirlikka olib ketadi. Oradan ancha yillar o‘tgandan keyin, Yahudo shohligidan surgun qilingan ayrim odamlar Quddusga qaytib kelib, Ma’badni va shahar devorini qayta quradilar. Xalqning aksariyat qismi esa surgunda yashab qolaveradi. Ulardan ba’zilari o‘zlari surgun bo‘lgan davlatlarda yuqori martabalarni egallaydilar.

Donishmandlik kitoblari

Navbatdagi beshta kitob (Ayub kitobidan “Sulaymon payg‘ambarning go‘zal qo‘shig‘i” kitobigacha) “donishmandlik kitoblari” deb ataladi. Ayub kitobi zamirida barcha zamonlarda dolzarb bo‘lgan quyidagicha savol yotadi: “Nima uchun Xudo solih kishilarning bu hayotda azob tortishlariga yo‘l qo‘yadi?” Zabur kitobi sanolardan tashkil topgan bo‘lib, dastlab bu she’rlar kuyga solingan va Xudoga hamdu sano, madhiya qo‘shiqlari tarzida musiqa asboblari jo‘rligida ijro etilgan. Hikmatlar kitobi maqol, matallar shaklidagi axloqiy va diniy ta’limotlardan iborat. Voiz kitobi inson hayotining maqsadi va mohiyati haqida chuqur o‘ylagan donishmand Voizning fikrlaridan iborat. “Sulaymon payg‘ambarning go‘zal qo‘shig‘i” kitobi sevgi haqidagi she’rlar to‘plamidir.

Payg‘ambarlar

Eski Ahdning so‘nggi 17 ta kitobi (Ishayo kitobidan Malaki kitobigacha) asosan payg‘ambarlarning xabarlari va bashoratlaridan tashkil topgan. Bu payg‘ambarlar miloddan oldingi 850-400 yillar oralig‘ida faoliyat ko‘rsatganlar. Bu davrlarda Isroil va Yahudo shohliklari alohida–alohida mustaqil davlat bo‘lgan, ikkala shohlik aholisi surgun qilingan va Yahudo xalqidan ba’zilari ona yurtiga qaytib kelgan edi. Payg‘ambarlar xalqni gunohlari uchun tavba qilishga, butlarga sajda qilmaslikka, Xudoga yuz burishga, Uning amrlarini bajarishga, solih hayot kechirishga undaganlar. Payg‘ambarlar kelajak haqida ko‘p bashoratlar qilganlar. Ko‘pincha bu bashoratlarda ramziy obrazlardan foydalanilgan va ular she’riy uslubda yozilgan. Mazkur payg‘ambarlar orasida o‘zbek kitobxonlariga yaxshi tanish bo‘lgan Doniyor ham bor.

Ishayo, Yeremiyo, Hizqiyol va Doniyor payg‘ambarlarning bitiklari “Katta payg‘ambarlar” degan nom bilan yuritiladi, chunki ularning bitiklari boshqa payg‘ambarlarnikiga qaraganda ancha katta. Qolgan o‘n ikkita payg‘ambarning bitiklari qisqa bo‘lgani bois, ular “Kichik payg‘ambarlar” degan nom bilan yuritiladi. Bu bitiklar kotiblar tomonidan bir o‘rama qog‘ozga ko‘chirilgan.

Payg‘ambarlar kitoblari xronologik tarzda joylashmagan. Qaysi payg‘ambar qachon faoliyat ko‘rsatgani haqida ma’lumot olish uchun mazkur nashrga ilova qilingan “Jadvallar” bo‘limida berilgan “Eski Ahd xronologiyasi jadvali” qismiga qarang.

YANGI AHD KITOBLARINING QISQACHA TAVSIFI

Yangi Ahd 27 ta kitobdan tashkil topgan bo‘lib, bu kitoblar Iso Masih osmonga ko‘tarilib ketgandan[1] keyin, milodiy birinchi asrda yozilgan. Bu kitoblar to‘plami o‘zbek tilida “Injil” deb ham yuritiladi. Yangi Ahdda bayon qilingan barcha voqealar Rim imperiyasi hududida sodir bo‘lgan edi.

[1] taxminan milodiy 30 yil

Yangi Ahd kitoblari qadimiy yunon tilida yozilgan. Matnda yunon harflari bilan yozilgan ba'zi oramiycha so'zlar va iboralar ham bor, chunki Yaqin Sharq mintaqasida oramiy tili keng qo'llangan edi. Yangi Ahddagi ko'plab dialoglar aslida oramiy tilida bo'lgan edi.

Xushxabarlar

Yangi Ahdning dastlabki to'rtta kitobi (Matto kitobidan Yuhanno kitobigacha) Iso Masihning tug'ilishi, hayoti, ta'limoti, o'limi va tirilishi haqidagi voqealardan iborat. Iso Masih O'zi keltirgan xabarni "Xushxabar" deb ataydi, shu boisdan ham dastlabki to'rtta kitob "Xushxabarlar" degan nom bilan yuritilgan. Bu Xushxabarlarni Iso Masihni shaxsan tanigan odamlar yoki ularning guvohligini bevosita eshitgan boshqa mualliflar yozganlar. To'rtala kitob uslub jihatdan va ayrim ma'lumotlarga ko'ra bir–biridan farq qiladi, ayniqsa, Yuhanno bayon etgan Xushxabar boshqa Xushxabarlardan alohida ajralib turadi. Bu farqlar muallif kitobni qay maqsadda va kimga atab yozganiga bog'liq. Bu kitoblar yaxlit holda Iso Masih haqida to'liqroq ma'lumot berib, Uning hayotini bitta kitobda yozilgandan ko'ra ko'proq yoritadi.

Ilk masihiylar jamoatining tarixi

Navbatdagi kitob "Havoriylarning faoliyati" deb nomlangan bo'lib, unda Iso Masih osmonga ko'tarilib ketgandan keyin, dastlabki yillarda shogirdlarning olib borgan faoliyati tasvirlanadi. Isoning bu shogirdlari va ilk jamoat yetakchilaridan ba'zilari "havoriy"[2] degan nom bilan tanilganlar. Kitobda Iso Masih haqidagi Xushxabar Quddusdan butun Rim imperiyasiga yoyilgani haqida hikoya qilinadi. Shu mavzu bilan bog'liq holda kitobning aksariyat qismida havoriy Pavlusning safarlari bayon qilinadi. Kitobda bayon qilinishicha, Pavlus Rim imperiyasiga qarashli ko'p shaharlarga borib, yahudiy va g'ayriyahudiylarga Masih haqida va'z qilgan va hatto imperiya poytaxti Rimga ham yetib borib, u yerda ko'pchilikka Xushxabar aytgan. Pavlus Rimdagi uy qamog'ida ekani haqidagi ma'lumot kitobga yakun yasaydi.

Maktublar

Havoriylar kitobidan keyin 21 ta maktub keladi. Bu maktublarni Iso Masihning ba'zi havoriylari Uning izdoshlariga yozib, imonda o'sish, solih hayot kechirish borasida nasihatlar berganlar. Mazkur maktublarning aksariyat qismi turli joylarda istiqomat qiluvchi imonlilar guruhlariga yozilgan, faqat to'rtta maktub muayyan shaxslarga yo'llangan.

Odatda ushbu maktublar ikki guruhga bo'lingan: 1) Pavlus yozgan maktublar, 2) Boshqa havoriylar yozgan maktublar. Mazkur mintaqada ko'p ishlatiladigan boshqa tarjimalardagi kabi, o'zbekcha tarjimada ham boshqa havoriylar yozgan maktublar Pavlusning maktublaridan oldin kelgan. Ibroniylarga maktub Pavlusning maktublari qatorida joylashtirilgan, ammo bu maktubning muallifi aniq emas va bu haqda olimlar hanuzgacha munozara qilmoqdalar.

Maktublar xronologik tartibda joylashmagan. Yangi Ahddagi xronologik tartib haqida to'liqroq ma'lumotga ega bo'lish uchun mazkur nashrga ilova qilingan "Jadvallar" bo'limida berilgan "Yangi Ahd xronologiyasi jadvali" qismiga qarang.

Apokaliptik[3] janrdagi kitob

Yangi Ahd Vahiy kitobi bilan yakunlanadi. Bu kitob Yangi Ahd tarkibidagi barcha kitoblardan keyin yozilgan, deb taxmin qilinadi. Ushbu kitob majoziy obrazlarga nihoyatda boy bo‘lib, unda Xudoning kelajakda dushmanlar ustidan g‘alaba qozonishi va Xudoning abadiy shohligi barqaror bo‘lishi haqida hikoya qilinadi.

MUQADDAS KITOB — YAXLIT BIR ASAR

Shuni tushunib olish muhimki, Yangi Ahdda Xudo ayon qilgan haqiqat Eski Ahddagi haqiqatni bekor qilmaydi. Aksincha, Eski Ahd haqiqati Yangi Ahd haqiqati uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Yangi Ahd, o‘z navbatida, Eski Ahddagi g‘oyalarni to‘ldiradi. Iso Masih Eski Ahdni mukammal bilgan edi, shu bois odamlarga ta’lim berganda Eski Ahddan ko‘plab iqtiboslar keltirgan. Iso shunday degan: “Meni, Tavrot yoki payg‘ambarlarning bitiklarini bekor qilgani kelgan, deb o‘ylamanglar. Men bekor qilgani emas, balki bajo keltirgani keldim” (Matto 5:17). Yangi Ahd mualliflari ham o‘z kitoblarida Eski Ahddan ko‘p foydalanib, ba’zan undan iqtibos keltirganlar, ba’zan esa undagi gaplarni o‘z so‘zlari bilan yozganlar.

Shunisi diqqatga sazovorki, Muqaddas Kitob tarkibidagi barcha bitiklar turli janrlarda, har xil vaziyatda va turli davrlarda yashagan mualliflar tomonidan yozilganiga qaramay, hammasi birgalikda ajoyib uyg‘unlikni namoyon qiladi. Xudoning kimligiyu Uning qanday ish yuritishi, odamzodning fe’l–atvori, xatti–harakati haqidagi g‘oyalar, markaziy mavzu bo‘lgan Xudo bilan insoniyatning yarashuvi haqidagi xabar Muqaddas Kitobda izchil yoritilgan. Yarashuv haqidagi bu xabar, asosan, hikoyalar orqali, ya’ni odamlar bilan Yaratuvchi Xudo o‘rtasidagi munosabatga oid voqealar orqali yetkaziladi. Muqaddas Kitob mualliflari voqealarni samimiy ravishda, odamlarning gunohlarini yashirmagan holda ro‘y–rost bayon qiladilar. Har bir inson haqidagi hikoya Xudo haqidagi katta hikoyaning bir qismini tashkil etadi. Muqaddas Kitobda bayon qilingan voqealardan shuni anglashimiz mumkinki, dunyo yaratilgandan beri, Xudo har bir odamni O‘ziga chorlab kelmoqda.

Asrlar davomida imonli odamlar ushbu kitoblarni Xudo tomonidan yuborilgan muqaddas bitiklar deb bilganlar. Darhaqiqat, Muqaddas Kitobda bu borada shunday yozilgan: “Muqaddas bitiklarning hammasi ilohiy ilhom bilan yozilgan” (2 Timo‘tiy 3:16), “Muqaddas bitiklardagi bashoratlarning hech biri payg‘ambarlarning shaxsiy talqini emas. Hech bir haqiqiy payg‘ambar o‘zining insoniy xohishi bilan bashorat qilgan emas. Bu payg‘ambarlar Muqaddas Ruh tomonidan boshqarilib, Xudoning so‘zlarini gapirganlar” (2 Butrus 1:20-21). Muqaddas Kitobni o‘qigan insonlar haqiqatni qidirganlarida, qaysi zamonda yashashlaridan qat’i nazar, Muqaddas bitiklarning qudrati va hokimiyatidan voqif bo‘lganlar. Zero, Muqaddas Kitobda shunday yozilgan: “Mening so‘zim olovday kuydiradi. Qoyani yoradigan bolg‘aday zarba beradi” (Yeremiyo 23:29), “Xudoning kalomi jonli va ta’sirli, har qanday dudama qilichdan o‘tkirroqdir. U jon bilan ruhni, bo‘g‘inlar bilan ilikni ajratgudek suqilib kiradi. Xudoning kalomi xayolu yurakning niyatlarini fosh etadi” (Ibroniylar 4:12).

---

[2] To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi HAVORIY so‘ziga qarang.
[3] ya’ni oxirzamonga oid bashoratlar va vahiylar

IBTIDO

(TAVROTNING BIRINCHI KITOBI)

Kirish

Ibtido kitobi Tavrotning birinchi kitobidir. Mazkur kitobda olamning yaratilishi, inson zotining paydo bo‘lishi, Isroil xalqining kelib chiqishi to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Butun borliqni, yer yuzidagi jamiki xalqlaru shohliklarni, insoniyat tarixini yagona Xudo boshqarishiga kitobda alohida urg‘u beriladi.

Ibtido kitobining birinchi qismida (1-11–boblar) olam va insoniyatning Ibrohim payg‘ambargacha bo‘lgan davri hikoya qilinadi. Xudo hamma narsani juda ajoyib qilib yaratgan edi, lekin ilk yaratilgan ikki inson — Odam Ato bilan Momo Havo Xudoga itoat etmadilar. Ularning itoatsizligi tufayli dunyoga gunoh kirib keldi. Insonlar shu qadar gunohga botib ketdilarki, Nuh payg‘ambardan va uning oilasidan tashqari, jamiki insoniyatni qirib tashlash uchun Xudo yer yuziga to‘fon yuborishga qaror qildi. Nuh va uning oilasi Xudoga itoat etardi, shuning uchun Xudo Nuhga: “O‘zingni, oilangni, hayvonlar va qushlarning har bir turini saqlab qolish uchun katta kema yasa”, deb amr etdi. To‘fondan keyin odamzod yana yer yuzi bo‘ylab yoyildi. Lekin ularning ko‘pchiligi yana Xudoga itoat etmay qo‘ydi.

Ibtido kitobining qolgan qismi (12-50–boblar) Ibrohim va uning xonadoni tarixiga oid voqealarni qamrab oladi. Xudo Ibrohim xonadonini, O‘zimning xalqim qilaman, deb tanlab oladi. Ibrohim va uning xotini Sora befarzand edilar, lekin Xudo ularga farzand va’da qilib, o‘sha farzand orqali jamiki xalqlarga baraka berishini aytadi.

Xudoning amri bilan Ibrohim va Sora o‘zlarining ona yurtini tark etib, Kan’on yurtiga ko‘chib boradilar. Xudo bu yurtni ularning nasliga berishni va’da qilgan edi. Ibrohim bilan Sora ancha keksayib qolganlarida, Xudo O‘z va’dasini bajarib, ularga o‘g‘il ato etadi, ular o‘g‘lining ismini Is’hoq qo‘yadilar. Is’hoq ikki o‘g‘il ko‘radi, o‘g‘illariga Yoqub va Esov deb ism qo‘yadi. Yoqub o‘n ikki o‘g‘il ko‘radi. Ular Isroilning o‘n ikki qabilasiga asos soladilar.

Kitobning oxirida Yoqubning o‘g‘li Yusuf haqida hikoya qilinadi. Yusufning aka–ukalari uni Ismoiliy savdogarlariga qul qilib sotib yuborishadi. Lekin vaqti kelib, Yusuf Misr hokimi bo‘ladi. Shu orqali u qahatchilik davrida Misr xalqini va otasi Yoqubning butun xonadonini qutqarib qoladi. Mazkur kitobning mohiyati shundan iboratki, Xudo insoniyat taqdirini boshqaradi, yuz berayotgan hamma hodisalarni nazorat qiladi, hatto insonning yomon niyatiyu qabih ishlarini O‘zining ezgu rejasini amalga oshirish uchun ishlatadi. Misr yurtida Yusuf aka–ukalariga shunday deydi: “Sizlar menga ravo ko‘rgan yomonlikni Xudo yaxshilikka ishlatdi. Son–sanoqsiz odamlarni saqlab qolish uchun U meni shu yerga olib keldi.” (Ibtido 50:20)

1–BOB

Dunyo yaratilishining tarixi

1 Xudo azalda osmon bilan yerni yaratdi*. 2 Yer shaklsiz va bo‘m–bo‘sh bo‘lib, tubsiz
dengizlar ustini zulmat qoplagan edi. Xudoning Ruhi suvlar uzra yurardi*.

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

3 Xudo: “Yorug‘lik bo‘lsin”, deb amr bergan edi, yorug‘lik paydo bo‘ldi. 4 Xudo
yorug‘likning ajoyib ekanini ko‘rib, yorug‘likni qorong‘ilikdan ajratdi. 5 Xudo
yorug‘likni kunduz, qorong‘ilikni tun deb atadi. Kech kirib, tong otdi*. Birinchi
kun o‘tdi.

6 So‘ng Xudo: “Suvlarni bir–biridan ajratib turadigan gumbaz paydo bo‘lsin”,
deb amr qildi. 7 Shunday ham bo‘ldi: Xudo gumbazni yaratib, gumbazning
ostidagi suvlardan gumbaz ustidagi suvlarni ajratdi*. 8 Xudo gumbazga osmon
deb nom berdi. Kech kirib, tong otdi. Ikkinchi kun o‘tdi.

9 Keyin Xudo: “Osmon ostidagi suvlar bir joyga to‘planib, quruq yer paydo
bo‘lsin”, deb amr qildi. Shunday ham bo‘ldi. 10 Xudo quruqlikka yer deb nom
berdi. Bir joyga yig‘ilgan suvlarni esa dengizlar deb atadi. Xudo buning ajoyib
ekanini ko‘rdi.
11 So‘ngra Xudo shunday amr berdi: “Yerda o‘t–o‘lan ko‘karsin. Don beradigan
har xil o‘simliklar, danagi bor har xil mevali daraxtlar o‘ssin.” Shunday ham
bo‘ldi. 12 Yerda o‘t–o‘lan ko‘kardi, don beradigan har xil o‘simliklar, danagi bor
har xil mevali daraxtlar o‘sdi. Xudo bularning ham ajoyib ekanini ko‘rdi. 13 Kech
kirib, tong otdi. Uchinchi kun o‘tdi.

14 Keyin Xudo shunday amr qildi: “Kunduzni tundan ajratish uchun osmon
gumbazida yoritqichlar paydo bo‘lsin. Bular kunlarning, yillarning,
nishonlanadigan bayramlarning* vaqtini ko‘rsatsin. 15 Bu yoritqichlar osmon
gumbazida nur sochib, yerga yorug‘lik bersin.” Shunday ham bo‘ldi. 16 Xudo ikkita
katta yoritqichni — quyosh va oyni yaratdi: kunduzi nur sochib turishi uchun
kattaroq yoritqich — quyoshni, tunda nur sochib turishi uchun kichikrog‘i —
oyni yaratdi. Shuningdek, Xudo yulduzlarni ham yaratdi. 17-18 Bu yoritqichlar
yerga yorug‘lik bersin, kunduz va tun ustidan hukmronlik qilsin, yorug‘likni
qorong‘ilikdan ajratib tursin deb, Xudo bularni osmon gumbaziga joylashtirdi.
Xudo buning ajoyib ekanini ko‘rdi. 19 Kech kirib, tong otdi. To‘rtinchi kun o‘tdi.

20 Keyin Xudo shunday amr berdi: “Suv har xil tirik jonivorlar bilan to‘lib–
toshsin, qushlar paydo bo‘lib, havoda parvoz qilsin.” 21 Shunday qilib, Xudo
bahaybat dengiz maxluqlarini va suvda suzuvchi turli–tuman jonivorlarni, har
turli qushlarni yaratdi. Xudo buning ham ajoyib ekanini ko‘rdi. 22 Shunda Xudo
bularning hammasiga marhamat qilib dedi: “Baliqlar va qushlar serpusht bo‘lib,
ko‘paysin. Dengizlar baliqlar bilan to‘lib–toshsin, yer uzra qushlar ko‘paysin.”
23 Kech kirib, tong otdi. Beshinchi kun o‘tdi.

24 So‘ngra Xudo: “Yer turli–tuman jonzotlarni — chorvani, sudralib yuruvchi
jonivorlarni*, har turli yovvoyi hayvonlarni paydo qilsin”, deb amr berdi.
Shunday ham bo‘ldi. 25 Xudo har turli yovvoyi hayvonlarni, chorvaning har xil
turlarini, yer yuzida sudralib yuruvchi jonivorlarning va hasharotlarning har xil
turlarini yaratdi. Xudo buning ajoyib ekanini ko‘rdi.
26 Keyin Xudo shunday dedi: “Endi inson zotini yarataylik, ular O‘z

suratimizday, O‘zimizga o‘xshagan bo‘lsin*. Inson zoti dengizdagi baliqlar
ustidan, osmondagi qushlar, yer yuzidagi chorva hamda jamiki yovvoyi
hayvonlar*, yerda sudralib yuruvchi har qanday jonivor va hasharotlar ustidan
hukmronlik qilsin.” 27 Shunday qilib,

Xudo O‘z suratiday qilib yaratdi inson zotini,
Erkagu ayol qilib yaratdi ularni.

28 Xudo insonlarga marhamat qilib, aytdi: “Uvali–juvali bo‘linglar, yer yuzini
to‘ldirib, itoat ettiringlar, dengizdagi baliqlar ustidan, osmondagi qushlaru yer
yuzida yashovchi har turli jonivorlar ustidan hukmronlik qilinglar.” 29 Xudo yana
aytdi: “Mana, sizlarga butun yer yuzidagi har xil donli o‘simliklarni va mevali
daraxtlarni berdim. Sizlar bulardan yegulik uchun foydalanasizlar. 30 Yer yuzidagi
jamiki tirik jonzotga — hamma hayvonlarga, hamma qushlarga yemish qilib ko‘k
o‘t–o‘lanni berdim.” Shunday ham bo‘ldi. 31 Xudo O‘zi yaratgan hamma narsaga
nazar soldi. Bular juda ajoyib edi. Kech kirib, tong otdi. Oltinchi kun o‘tdi.

2–BOB

1 Shunday qilib, osmon bilan yer hamda ulardagi jamiki narsalar yaratildi. 2-
3 Yettinchi kuni Xudo barcha yaratish ishlarini bitirib, dam oldi. Xudo yettinchi kuni
hamma ishlaridan dam olgani uchun bu kunni muborak qildi, uni muqaddas deb boshqa
kunlardan ajratdi.

4 Osmon bilan yerning* yaratilishi ana shulardan iboratdir.

Adan bog‘i

Parvardigor Egamiz osmon bilan yerni yaratgan paytda 5 yer yuzida na biron o‘t, na
biron giyoh ungan edi. Chunki Parvardigor Egamiz hali yerga yomg‘ir yog‘dirmagan,
yerga ishlov beradigan biron kimsa yaratmagan edi. 6 Lekin yer ostidan suv chiqib*,
butun yer yuzini sug‘orardi. 7 Shundan keyin Parvardigor Egamiz yerning tuprog‘idan
odamni* yasadi va uning burun teshigidan puflab, jon ato etdi. Shunday qilib, odam tirik
jon bo‘ldi. 8 Parvardigor Egamiz sharqda — Adan degan joyda bog‘ barpo qilib, O‘zi
yaratgan odamni o‘sha boqqa qo‘ydi. 9 Keyin Parvardigor Egamiz yerdan chiroyli,
lazzatli meva beradigan har xil daraxtlarni o‘stirdi. Bog‘ning o‘rtasida esa hayot
daraxtini va yaxshilik bilan yomonlikni bilish daraxtini o‘stirdi.

10 Adandan bir daryo oqib kelib, bog‘ni sug‘oradi va o‘sha yerda to‘rt irmoqqa
bo‘linadi. 11 Birinchi irmoqning nomi Pishon bo‘lib, butun Xavila yeri bo‘ylab oqadi. Bu
joyda oltin bor. 12 O‘sha yerning oltini juda ham tozadir. U yerda marvarid* va aqiq
toshlar ham bor. 13 Ikkinchi irmoqning nomi Gixo‘n bo‘lib, butun Kush* yeri bo‘ylab
oqadi. 14 Uchinchi irmoqning nomi Dajla bo‘lib, Ossuriya shahrining sharqidan oqib
o‘tadi. To‘rtinchi irmoqning nomi Furotdir.

15 Shunday qilib, Parvardigor Egamiz, bu odam boqqa ishlov bersin, parvarish qilsin
deb, uni Adan bog‘iga joylashtirdi. 16 Parvardigor Egamiz unga shunday amr qildi: “Sen
bog‘dagi hamma daraxtning mevasidan bemalol yeyaver. 17 Lekin yaxshilik va
yomonlikni bilish daraxtining mevasidan yemaysan, undan yeyishing bilanoq,
shubhasiz, o‘lasan.”

18 So‘ngra Parvardigor Egamiz: “Odamning yolg‘iz bo‘lishi yaxshi emas, unga
munosib sherik yarataman”, dedi. 19 Shunday qilib, U tuproqdan har xil hayvonlarni va
har xil qushlarni yaratdi. “Bu jonivorlarni odam ko‘rib qanaqa nom berarkin”, deya
ularni odamning oldiga olib keldi. Odam har bir jonivor uchun nom tanladi. 20 Odam
hamma chorvaga, qushlarga va yovvoyi hayvonlarga nom berdi. Lekin hamon odamga
munosib sherik yo‘q edi. 21 Shu boisdan Parvardigor Egamiz uni qattiq uxlatib qo‘ydi.
Odam uxlab yotganda, Xudo uning qovurg‘asidan bittasini olib, o‘rnini berkitib qo‘ydi.
22 Parvardigor Egamiz odamning qovurg‘asidan xotin kishini yaratdi va uni odamning
oldiga olib keldi. 23 Shunda odam aytdi:

“Nihoyat, bu mening suyaklarimdan paydo bo‘lgan suyakdir,
Mening etimdan yaralgan etdir.
U Xotin deb atalgay,
Chunki u erkakdan* yaratilgandir.”

24 Shuning uchun erkak kishi ota–onasidan bo‘lak bo‘lib, xotiniga bog‘lanib qoladi,
ikkalasi bir tan bo‘ladilar.
25 Odam bilan xotini qip–yalang‘och yurardilar, bir–birlaridan uyalish hissini
sezmasdilar.

3–BOB

Odam Ato va Momo Havo gunoh qiladi

1 Parvardigor Egamiz hamma yovvoyi hayvonlarni ham yaratgan edi. O‘sha
hayvonlar orasida ancha ayyori ilon edi. Ilon xotindan:
— Haqiqatan ham Xudo, bog‘dagi bironta daraxtning mevasidan yemanglar, deb
aytdimi? — deb so‘radi.
2 Xotin ilonga:
— Yo‘g‘–e, biz bog‘dagi hamma daraxtlarning mevasidan yeyishimiz mumkin, — deb
javob berdi. 3 — Lekin Xudo, bog‘ o‘rtasidagi daraxtning mevasidan yemanglar ham,
tegmanglar ham, aks holda, o‘lasizlar, deb aytgan.
4 Ilon esa xotinga:
— Yo‘q, o‘lmaysizlar, — dedi. 5 — Chunki Xudo biladiki, sizlar bu mevalardan
yesangiz, ko‘zlaringiz ochilib, sizlar ham barcha yaxshi va yomon narsalarni biladigan
bo‘lib, Xudoga* o‘xshab qolasizlar.
6 Xotin qarasaki, o‘sha daraxt ko‘zga chiroyli ko‘rinadi, mevalari juda yeyishli ekan.
Xotin: “Qaniydi mevalar menga donolik ato qilsa”, deb orzu qildi. U daraxtning
mevasidan olib yedi, keyin yonida turgan eriga ham berdi. Eri ham yedi. 7 O‘sha zahoti
ikkovining ham ko‘zlari ochilib, ular yalang‘och ekanliklarini angladilar, anjir barglarini
sonlari atrofiga tizib, o‘zlariga yopinchiq yasadilar.
8 Oqshom payti shabada esib turganda, odam va xotini bog‘da Parvardigor
Egamizning yurganini bildilar. Ular Parvardigor Egamizning nazaridan qochib, bog‘dagi
daraxtlar orasiga yashirindilar. 9 Parvardigor Egamiz:
— Qayerdasan? — deb odamni chaqirdi. 10 Odam:
— Men bog‘da yurganingni bildim–u, yalang‘och bo‘lganim uchun qo‘rqib,

yashirindim, — dedi.
11 — Yalang‘och ekaningni senga kim aytdi? — deb so‘radi Xudo. — Yoki Men,
yemanglar, deb amr etgan daraxtning mevasidan yedingmi?
12 Odam javob berdi:
— O‘zing menga bergan xotin o‘sha daraxtning mevasidan menga berdi, men ham
yedim.
13 Shunda Parvardigor Egamiz xotinga:
— Bu nima qilganing? — dedi.
— Ilon meni aldadi, men mevadan yedim, — dedi xotin.

Xudo hukm qiladi

14 Parvardigor Egamiz ilonga shunday dedi:

“Shu qilmishlaring uchun
La’nati bo‘lgaysan barcha jonzotlar orasida
Va jamiki yovvoyi hayvonlar orasida.
Qorning bilan sudralib yurgaysan,
Umring bo‘yi tuproq yegaysan.
15 Dushmanlik paydo qilaman sen bilan xotin o‘rtasida,
Sening zoting bilan uning zoti orasida.
Uning zoti ezib tashlaydi sening boshingni,
Sen chaqib olasan uning tovonini.”

16 Xotinga esa shunday dedi:

“Homiladorligingda g‘oyat azob beraman,
Mashaqqat ila bola tug‘asan.
Ammo eringni qo‘msayverasan,
Ering esa hokim bo‘ladi sening ustingdan.”

17 Parvardigor Egamiz odamga shunday dedi:

“Xotiningning gapiga kirganing uchun,
Men, yema, deb taqiqlagan mevani yeganing uchun
Sen tufayli yerni la’nati qildim.
Butun umring bo‘yi timdalab yerni,
Yerdan o‘tkazasan tirikchiligingni.
18 Yerning hosili yemishing bo‘lsa ham,
Yer sen uchun tikanlaru qushqo‘nmas* o‘stiradi.
19 Sen tuproqdan yaralgansan,
To tuproqqa qaytguningga qadar,
Peshana tering bilan non yeysan.
Zero, sen tuproqdirsan
Va tuproqqa qaytasan.”

20 Xotin jamiki insonlarning onasi bo‘lgani uchun, Odam Ato* unga Momo Havo* deb
ism berdi. 21 Odam Ato va uning xotini uchun Parvardigor Egamiz teridan kiyim–kechak

yasab, ularni kiyintirib qo‘ydi.

Odam Ato va Momo Havo Adan bog‘idan quviladilar

22 Keyin Parvardigor Egamiz shunday dedi: “Mana, inson hamma narsani — yaxshilik
va yomonlikni bilib, Bizga o‘xshab qoldi. Endi u qo‘lini uzatib, hayot daraxti mevasidan
ham olmasin, mevani yeb, abadiy yashaydigan bo‘lib qolmasin.” 23 Shu sababdan
Parvardigor Egamiz Odam Atoni va Momo Havoni Adan bog‘idan chiqarib yubordi. U
Odam Atoni yerning tuprog‘idan yasagan edi, unga endi o‘sha yerni ishlashga berdi. 24 U
Odam Atoni haydab yuborgandan keyin, hayot daraxtiga boradigan yo‘lni qo‘riqlash
uchun Adan bog‘ining sharq tomoniga karublarni* va doimo aylanib turadigan alangali
qilichni o‘rnatdi.

4–BOB

Qobil bilan Hobil

1 Odam Ato xotini Momo Havoga yaqinlashgandan keyin, Momo Havo homilador
bo‘ldi. Momo Havo o‘g‘il ko‘rdi va: “Xudoning qudrati bilan o‘g‘illi bo‘ldim”, deb ismini
Qobil* qo‘ydi. 2 Keyinroq Momo Havo ikkinchi o‘g‘lini tug‘di va unga Hobil deb ism
qo‘ydi. Bolalar ulg‘ayib, Hobil — qo‘ychivon, Qobil — dehqon bo‘ldi. 3 Vaqti kelib, Qobil
yerning hosilidan Egamizga nazr olib keldi. 4 Hobil ham suruvidagi birinchi tug‘ilgan
qo‘zilardan bittasini tanlab olib, so‘ydi va qo‘zining yog‘li joylarini Egamizga nazr qilib
olib keldi. Egamiz Hobilni va uning nazrini manzur ko‘rdi, 5 lekin Qobilning o‘zi ham,
uning nazri ham ma’qul bo‘lmadi. Qobil qattiq xafa bo‘lib, qovog‘ini soldi. 6 Shunda
Egamiz Qobilga dedi: “Nega xafa bo‘lding? Nimaga qovog‘ingni solding? 7 Agar sen to‘g‘ri
ish qilsang, seni qabul qilmasmidim?!* Bilginki, yomon ish qilsang, eshigingda gunoh
poylab turadi, sherga o‘xshab tashlanib, seni o‘lja qilmoqchi bo‘ladi. Gunoh sening
ustingdan hukmron bo‘lishni istaydi. Lekin sen gunohni mag‘lub qilishing kerak.”

8 Qobil ukasi Hobilga: “Yur, dalaga boramiz”, deb taklif qildi*. Ular dalaga
borganlarida, Qobil ukasiga tashlanib, uni o‘ldirdi.

9 Egamiz Qobildan:

— Ukang Hobil qayerda? — deb so‘radi.

— Bilmayman, nima, ukam qayerga borsa, men uning qadamini o‘lchab yurishim
kerakmi?! — deb e’tiroz bildirdi.

10 Shunda Egamiz:

— Nima qilib qo‘yding?! — dedi. — Eshitib ol: ukangning qoni Menga yerdan faryod
qilmoqda. 11 Ukangning qoni bilan yerni bulg‘aganing uchun endi la’nati bo‘lasan, yerga
hech qachon ishlov berolmaysan. 12 Yerga qanchalik jon kuydirib ishlov bermagin, yer
sen uchun boshqa mo‘l hosil yetishtirmas. Hozirdan boshlab sen yer yuzida doimo bir
joydan boshqa joyga qochib, boshpanasiz, daydib yurasan.

13 Qobil Egamizga:

— Jazoyim shunchalik og‘irki, bir o‘zim ko‘tara olmayman, — deb javob berdi. 14 —
Bugun Sen meni yerimdan haydading. Endi men Sendan uzoq bo‘lib yashayman, yer
yuzida sarson–sargardon bo‘lib, qochib yuraman. Endi meni birortasi uchratib qolib,
o‘ldirib qo‘yishi mumkin.

15 Shunda Egamiz:

— Yo‘q, hech kim seni o‘ldirmaydi! — deb javob berdi Qobilga. — Kim seni o‘ldirsa,

undan yetti karra oʻch olaman.

Shunday qilib, Egamiz, Qobilni birov urib oʻldirib qoʻymasin deb, unga tamgʻa qoʻydi.
16 Soʻngra Qobil Egamizdan uzoqlashib ketdi va Adanning sharqidagi Nod* degan yerga
oʻrnashdi.

Qobilning nasli

17 Qobilning xotini homilador boʻlib, oʻgʻil tugʻdi. Oʻgʻliga Xanoʻx deb ism qoʻydilar.
Qobil bir shahar qurdi va shaharni oʻgʻlining ismi bilan Xanoʻx deb atadi. 18 Xanoʻx bir
oʻgʻil koʻrib, ismini Irod qoʻydi. Iroddan — Maxuvol, Maxuvoldan — Matushol,
Matusholdan — Lamex degan oʻgʻillar tugʻildi. 19 Lamex ikki xotin oldi. Bittasining ismi
Oida, boshqasiniki Zilla edi. 20 Oida bir oʻgʻil koʻrib, ismini Yobol qoʻydi. Yobol
chodirlarda yashaydigan choʻponlarning ota–bobosi boʻldi. 21 Ukasining ismi Yuval edi.
Yuval lira va nay chaluvchi sozandalarning ota–bobosi boʻldi. 22 Zilla ham bir oʻgʻil koʻrib,
ismini Tuvalqobil qoʻydi. Tuvalqobil birinchi boʻlib bronza va temir asboblar yasagan
edi. Tuvalqobilning Namax degan singlisi bor edi.

23 Lamex xotinlariga dedi:

“Oida va Zilla, menga quloq solinglar.
Ey xotinlarim! Gapimni eshitinglar!
Meni yaralagan odamni men oʻldirdim,
Meni urgan yosh yigitni nobud qildim.
24 Qobilni oʻldirgandan yetti karra oʻch olinsa,
Lamexni oʻldirgandan yetmish yetti karra oʻch olinar.”

Shis va Enoʻsh

25 Odam Ato bilan xotini yana bir oʻgʻil koʻrdilar. Momo Havo: “Qobil oʻldirgan
Hobilning oʻrniga Xudo boshqa farzand berdi”, deb ismini Shis* qoʻydi. 26 Shis ulgʻayib, u
ham bir oʻgʻil koʻrdi va ismini Enoʻsh qoʻydi. Oʻsha paytda odamlar endi Egamizga sajda
qila boshlagan edilar.

5–BOB

Odam Atoning nasli

1 Odam Atoning nasl–nasabi tarixi quyidagichadir:

Xudo inson zotini yaratganda, ularni Oʻziga oʻxshagan qilib yaratgan edi. 2 Xudo
insonlarni erkak va ayol qilib yaratdi. Xudo ularni yaratgandan keyin Inson deb nom
qoʻyib, ularga baraka berdi.

3 Odam Ato 130 yoshida oʻgʻil koʻrgan edi*. Oʻgʻli otasining suratiday boʻlib, unga
oʻxshagan edi. Odam Ato oʻgʻliga Shis deb ism qoʻygan edi. 4 Shis tugʻilgandan keyin,
Odam Ato 800 yil yashab, yana oʻgʻil–qizlar koʻrdi. 5 Odam Ato 930 yoshida olamdan
oʻtdi.

6 Shis 105 yoshida oʻgʻli Enoʻshni koʻrgan edi*. 7 Enoʻsh tugʻilgandan keyin, Shis 807
yil yashab, yana oʻgʻil–qizlar koʻrdi. 8 Shis 912 yoshida olamdan oʻtdi.

9 Enoʻsh 90 yoshida oʻgʻli Xenanni koʻrdi. 10 Xenan tugʻilgandan keyin, Enoʻsh 815 yil
yashab, yana oʻgʻil–qizlar koʻrdi. 11 Enoʻsh 905 yoshida olamdan oʻtdi.

12 Xenan 70 yoshida oʻgʻli Maxaliyolni koʻrdi. 13 Maxaliyol tugʻilgandan keyin, Xenan

840 yil yashab, yana o‘g‘il–qizlar ko‘rdi. 14 Xenan 910 yoshida olamdan o‘tdi.
15 Maxaliyol 65 yoshida o‘g‘li Yoredni ko‘rdi. 16 Yored tug‘ilgandan keyin, Maxaliyol 830 yil yashab, yana o‘g‘il–qizlar ko‘rdi. 17 Maxaliyol 895 yoshida olamdan o‘tdi.
18 Yored 162 yoshida o‘g‘li Xano‘xni* ko‘rdi. 19 Xano‘x tug‘ilgandan keyin, Yored 800 yil yashab, yana o‘g‘il–qizlar ko‘rdi. 20 Yored 962 yoshida olamdan o‘tdi.
21 Xano‘x 65 yoshida o‘g‘li Matushalohni ko‘rdi. 22 Matushaloh tug‘ilgandan keyin, Xano‘x 300 yil yashab, yana o‘g‘il–qizlar ko‘rdi. U umr bo‘yi Xudoga hamroh bo‘lib yashadi. 23 Xano‘x 365 yil umr ko‘rdi. 24 U butun umri davomida Xudoga hamroh bo‘lib yashab, oxiri, g‘oyib bo‘lib qoldi, chunki Xudo uni olib ketgan edi.
25 Matushaloh 187 yoshida o‘g‘li Lamakni ko‘rdi. 26 Lamak tug‘ilgandan keyin, Matushaloh 782 yil yashab, yana o‘g‘il–qizlar ko‘rdi. 27 Matushaloh 969 yoshida olamdan o‘tdi.
28 Lamak 182 yoshida bir o‘g‘il ko‘rdi. 29 Lamak: “Egamiz bu yerni la’natlagan, endi yerga ishlov berganimizda, og‘ir ishlarimizni shu bola yengillashtirsin”, deb o‘g‘lining otini Nuh* qo‘ydi. 30 Nuh tug‘ilgandan keyin, Lamak 595 yil yashab, yana o‘g‘il–qizlar ko‘rdi. 31 Lamak 777 yoshida olamdan o‘tdi.
32 Nuh 500 yoshdan o‘tgandan keyin Som, Xom va Yofas degan o‘g‘illarini ko‘rdi.

6–BOB

Insoniyatning qabihligi

1 Yer yuzida insonlar borgan sari ko‘paya boshladi. Qizlar ham tug‘ilgan edi. 2 Ilohiy zotlar*, bu qizlar* chiroyli ekan, deb yoqtirganlarini o‘zlariga xotin qilib olaverdilar.
3 Shunda Egamiz aytdi: “Men ato etgan Ruh* insonlar bilan abadiy qolmaydi*, chunki ular o‘ladigan jonlardir*. Kelgusida ular 120 yil umr ko‘rsin.” 4 O‘sha kunlarda, undan keyin ham bu olamda ulkan pahlavonlar* yashadi. Ilohiy zotlar bilan ayol zotidan* tug‘ilgan bu pahlavonlar qadimgi davrning buyuk qahramonlari, mashhur jangchilari bo‘lgan edilar.
5 Egamiz ko‘rdiki, yer yuzida inson zoti qilayotgan qabihliklar juda ham ko‘p ekan. Ularning ko‘nglida faqat qabih niyat bor ekan. 6 Egamiz yer yuzida insonlarni yaratganidan pushaymon bo‘ldi, yurakdan afsuslandi. 7 Egamiz aytdi: “O‘zim yaratgan inson zotini yer yuzidan qirib yuboraman. Men inson bilan birga hayvonlarni, sudralib yuruvchi jonivorlarni, hasharotlarni, qushlarni ham qiraman, ularni yaratganimdan pushaymon bo‘lyapman.” 8 Faqat Nuh Egamizning marhamatiga sazovor bo‘lgan edi.

Nuh

9 Nuhning nasl–nasabi tarixi quyidagichadir:

O‘sha davrda yer yuzidagi solih, benuqson odam faqat Nuh bo‘lib, Xudoga hamroh bo‘lib yashardi. 10 Nuhning Som, Xom, Yofas degan uchta o‘g‘li bor edi.
11 Endilikda yer yuzi Xudoning oldida axloqsizlikka, zo‘ravonlikka to‘lib–toshib ketgan edi. 12 Xudo ko‘rdiki, olam buzilib ketgan, yer yuzidagi jamiki insoniyat yo‘ldan ozgan edi. 13 Xudo Nuhga aytdi: “Men butun yer yuzidagi insonlarni qirib tashlashga qaror qildim. Chunki yer yuzi ularning dastidan zo‘ravonlikka to‘lib–toshdi. Endi ularni butun yer bilan birga yo‘q qilmoqchiman. 14 Qattiq yog‘ochdan* o‘zingga kema yasa, kemaning ichida xonalar ham yasab, kemaning ichki va tashqi tomonini qora saqich

bilan suvab chiq. 15 Kemaning uzunligi 300 tirsak, kengligi 50 tirsak, balandligi 30
tirsak* bo‘lsin. 16 Kemaning tomini yasaganingda, tom bilan kemaning devori oralig‘ida
bir tirsak* ochiq joy qoldir*. Eshigini kemaning yon tomonidan yasa. Kemani uch qavatli
qilib yasa. 17 Men yer yuzini to‘fonga bostirib, tirik jonzotning hammasini qirib
tashlayman. Yer yuzidagi jamiki mavjudot nobud bo‘ladi. 18 Sen bilan esa Men ahd
qilaman. Sen kema ichiga kirasan, sen bilan birga o‘g‘illaring, xotining, kelinlaring ham
kiradi. 19 Hayvonlarning har bir turidan bir juftdan — erkagi va urg‘ochisidan kema
ichiga o‘zing bilan olib kirasan, toki to‘fon paytida ular sen bilan birga tirik qolsin.
20 Qushlarning, hayvonlarning, sudralib yuruvchi jonivorlarning va hasharotlarning har
bir turidan juft–juft qilib, o‘zing bilan olib kirasan, toki ular tirik qolsin. 21 O‘zing bilan
oziq–ovqatlarning har bir turidan g‘amlab ol. Oziq–ovqatlar oilang bilan barcha
jonzotlarga yegulik bo‘ladi.” 22 Nuh hamma narsani Xudo amr etganday qildi.

7–BOB

To‘fon

1 Nihoyat, vaqti kelib, Egamiz Nuhga aytdi: “Sen butun oila a’zolaring bilan kema
ichiga kir. Yer yuzidagi xalqlar orasida Mening oldimda solih bo‘lib yurganlardan faqat
seni topdim, xolos. 2 O‘zing bilan halol hayvonlarning urg‘ochi va erkagidan yetti juftdan,
harom hayvonlarning* urg‘ochi va erkagidan esa bir juftdan ol. 3 Qushlarning har bir
turidan — erkagi va urg‘ochisidan ham yetti juftdan tanlab ol, toki butun yer yuzida bu
jonzotlarning turlari saqlanib qolsin. 4 Yetti kundan keyin, Men yer yuziga qirq kechayu
qirq kunduz davomida yomg‘ir yog‘diraman. O‘zim yaratgan har bir tirik narsani yer
yuzidan yo‘q qilaman.” 5 Nuh hammasini Egamiz amr etganday qildi.

6 Yer yuzini to‘fon bosganda, Nuh 600 yoshda edi. 7 Nuh bilan birga xotini, o‘g‘illari,
kelinlari to‘fondan omon qolish uchun kemaning ichiga kirdilar. 8 Halol va harom
hayvonlardan, qushlardan, yerda sudralib yuruvchi jonivorlardan, hasharotlardan har
biri 9 — erkak va urg‘ochisi juft–juft bo‘lib Nuh bilan birga kemaga kirdi. Shunday qilib,
Nuh Xudoning hamma amrlarini bajardi. 10 Yetti kundan keyin yer yuzini to‘fon bosa
boshladi.

11 Nuh 600 yoshga kirganda, ikkinchi oyning o‘n yettinchi kuni yer ostidagi buloqlar
otilib chiqdi*, osmonning qopqalari ochildi*. 12-13 Ayni o‘sha kuni Nuh bilan birga uning
o‘g‘illari Som, Xom va Yofas, xotini va uchala kelini kema ichiga kirdilar. Qirq kechayu
qirq kunduz tinmay yomg‘ir yog‘di. 14 Ular bilan birga yovvoyi hayvonlardan, chorvadan,
yerda sudralib yuruvchi hamma jonivor va hasharotlardan, qushlardan — hammasining
har bir turidan kemaga kirdi. 15 Bu tirik jonzotlar ikkita–ikkitadan bo‘lib Nuh bilan birga
kemaga kirdi. 16 Xudo Nuhga amr qilganday, hamma jonivorlarning erkak va urg‘ochisi
kemaga kirib bo‘lgach, Egamiz Nuhning orqasidan eshikni yopdi.

17 Yer yuzida qirq kun davomida to‘fon bo‘lib, suv yerni ko‘mdi, kemani yerdan
yuqori ko‘tardi. 18 Suv yer ustida tobora ko‘payib borar, kema suv yuzida suzardi. 19 Suv
yer yuzida shunchalik to‘lib–toshdiki, baland tog‘lar ham ko‘milib ketdi. 20 Suv
tog‘lardan o‘n besh tirsak* balandlikka ko‘tarildi. 21 Yer yuzida yurgan jamiki jonzot —
qushlar, chorva, yovvoyi hayvonlar, sudralib yuruvchi jonivorlar, inson zoti nobud
bo‘ldi. 22 Quruq yer ustida yashab turgan hamma tirik jonzot nobud bo‘ldi. 23 Yer
yuzidagi har qanday jonzotni — insonlarni, hayvonlarni, sudralib yuruvchi jonivorlarni,

hasharotlarni, qushlarni Xudo yo‘q qilib yubordi, hammasi yer yuzidan qirilib ketdi. Faqat Nuh va u bilan birga kemada bo‘lganlargina tirik qoldilar, xolos. 24 Suv 150 kun davomida yer yuzini qoplab turdi.

8–BOB

To‘fonning intihosi

1 Xudo Nuhni va u bilan kemada birga bo‘lgan barcha jonzotlarni esdan chiqarmagan edi. Xudo yer uzra shabada estirgan edi, suv pasaya boshladi. 2 Yer ostidagi buloqlar*, osmonning qopqasi* berkildi, qattiq quyayotgan jala to‘xtadi. 3 Suv asta–sekin yer yuzida kamaya boshladi. Nihoyat, 150 kundan keyin suv kamaydi. 4 Yettinchi oyning o‘n yettinchi kuni* kema Ararat tog‘i cho‘qqilariga tiralib to‘xtab qoldi. 5 O‘ninchi oygacha suv kamayib boraverdi. Nihoyat, o‘ninchi oyning birinchi kuni* tog‘ cho‘qqilari ko‘rindi.

6 Yana qirq kun o‘tgach, Nuh kemaning darchasini ochdi–da, 7 qarg‘ani chiqarib yubordi. Yer yuzidagi suv quriguncha, qarg‘a u yoqdan–bu yoqqa uchib yuraverdi. 8 Yer yuzidagi suv quriganini bilish uchun endi Nuh kemadan kaptarni uchirib yubordi. 9 Hali yer yuzini suv bosib yotgani uchun kaptar qo‘ngani joy topolmay, kemaga — Nuhning yoniga qaytib keldi. Nuh kaptarni ushlab, ichkariga oldi. 10 Yetti kundan keyin Nuh yana kaptarni kemadan uchirdi. 11 Kechga yaqin kaptar uning yoniga qaytib keldi. Kaptarning tumshug‘ida yangi o‘sib chiqqan zaytun bargi bor edi. Nuh bildiki, yer yuzidagi suv pasayibdi. 12 Nuh yana yetti kunni o‘tkazib, kaptarni uchirib yubordi. Kaptar Nuhning yoniga boshqa qaytib kelmadi.

13 Nuh 601 yoshga kirganda, birinchi oyning birinchi kunida* yer yuzidagi suv quriy boshladi. Nuh kemaning qopqog‘ini ochib qaradi, yer yuzi hali to‘liq qurimagan ekan. 14 Nihoyat, ikkinchi oyning yigirma yettinchi kuni* yer butunlay qup–quruq bo‘ldi. 15 Keyin Xudo Nuhga shunday dedi: 16 “Kemadan chiq, xotining, o‘g‘illaring, kelinlaring ham sen bilan birga kemadan chiqishsin. 17 O‘zing bilan birga hamma tirik jonzotlarni — qushlaru hayvonlarni, sudralib yuruvchi jonivorlarni, hasharotlarni ham olib chiq, toki ular yer yuzida serpusht bo‘lib, ko‘payib, g‘ij–g‘ij qaynasin.” 18 Shunday qilib, Nuh o‘g‘illarini, xotini va kelinlarini boshlab, kemadan tashqariga chiqdi. 19 Hamma hayvonlar, sudralib yuruvchi jonivorlar, hasharotlar, qushlar — yerda yashaydigan jamiki jonzotlar ham o‘z jufti bilan kemadan chiqdi.

Nuh qurbonlik keltiradi

20 So‘ngra Nuh Egamizga atab qurbongoh qurdi. So‘ng har bir halol hayvondan va halol qushdan* olib, qurbongoh ustida ularni qurbonlik qilib kuydirdi. 21 Egamiz qurbonlikning xushbo‘y hididan mamnun bo‘lib, O‘ziga O‘zi dedi: “Insonning ko‘nglida bolaligidanoq qabih niyat bor ekan. Shunday bo‘lsa ham, Men bundan buyon jamiki tirik jonzotni oldingiday qirib tashlamayman. Inson tufayli butun dunyoni la’natlamayman. 22 Bu olam turar ekan, bahorda ekin–tikin, kuzda o‘rim–yig‘im, yoz va qish, sovuq va issiq, kunduz va tun bo‘laveradi.”

9–BOB

Xudo Nuh bilan ahd qiladi

1 Xudo Nuh bilan uning o‘g‘illariga marhamat qilib, ularga dedi: “Uvali–juvali

bo‘linglar, yer yuzini to‘ldiringlar. 2 Yer yuzidagi jamiki hayvonlar, osmondagi hamma
qushlar, yerda sudralib yuruvchi jonivor va hasharotlarning hammasi, dengizdagi
hamma baliqlar sizlardan qo‘rqib, hurkadigan bo‘ladi. Bularning hammasi ustidan sizlar
hukmron bo‘lasizlar. 3 O‘tni va sabzavotlarni sizlarga yemish qilib berganim singari,
hamma tirik jonzotlarni ham sizlar uchun yemish qilib beraman. 4 Lekin etni qoni bilan
yemaysizlar. Qonda jon bo‘lgani uchun Men buni taqiqlayman. 5 Qotillik jazolanadi.
Insonning jonini olgan insondan Men xun talab qilaman, insonni o‘ldirgan har qanday
hayvon o‘ldirilishi lozim.

6 Kimki inson qonini to‘ksa,
Uning qonini ham inson to‘kar.
Zero, inson zotini Men, Xudo,
Yaratganman O‘z suratimda.

7 Barakali bo‘lib ko‘payinglar, yer yuzida to‘lib–toshib, tobora ortib boringlar.”
8 Xudo Nuh bilan uning o‘g‘illariga yana gapirdi: 9 “Men endi sizlar bilan va sizlarning
avlodingiz bilan ahd qilaman. 10 Sizlar bilan kemadan chiqqan hamma tirik jonzot —
qushlar, chorva, yer yuzida yashovchi hamma jonivorlar bilan ham ahd qilaman. 11 Sizlar
bilan qat’iy ahd qilaman: bundan buyon barcha jonzot to‘fon tufayli qirilib ketmaydi, yer
yuzini qirib bitiradigan to‘fon boshqa hech qachon bo‘lmaydi, deb va’da beraman.
12 Sizlar va jamiki tirik jonzot bilan qilayotgan abadiy ahdimning alomati shu bo‘ladi:
13 Men bulutlar orasida O‘z kamalagimni* hosil qilaman. Bu kamalak Mening olam ahli
bilan qilgan ahdimning alomati bo‘ladi. 14 Men bulutlarni yer ustiga olib kelganimda,
kamalak bulutlar orasida ko‘rinib turadi. 15 Ana o‘shanda Men O‘zim bilan sizlar va
hamma tirik jonzot o‘rtasida qilgan ahdimni yodimda tutaman. To‘fon endi hech qachon
jamiki jonzotni yo‘q qilmaydi. 16 Kamalak bulutlar orasida turganda, Men kamalakni
ko‘rib, yer yuzidagi tirik jonzot bilan O‘zim qilgan abadiy ahdimni yodimda tutaman.”
17 Xudo yana Nuhga dedi: “Yer yuzidagi jamiki tirik jonzot bilan Men qilayotgan ahdning
alomati ana shudir.”

Nuh va uning o‘g‘illari

18 Nuh va uning o‘g‘illari Som, Xom va Yofas kemadan chiqishdi. Keyinroq Xom o‘g‘il
ko‘rib, ismini Kan’on qo‘ydi. 19 Nuhning uchala o‘g‘lidan butun yer yuzidagi xalqlar
tarqaldi.
20 To‘fondan keyin Nuh dehqon bo‘ldi va ilk bor uzumzor barpo qildi. 21 Bir kuni u
o‘zi tayyorlagan maydan ichdi. Mast bo‘lib, chodirida yalang‘och yotgan edi,
22 Kan’onning otasi Xom otasining yalang‘och yotganini ko‘rdi va tashqariga chiqib,
akalariga aytdi*. 23 Som bilan Yofas bir kiyimni olib, yelkalariga tashladilar. Orqalari
bilan chodirga kirib, otalarining yalang‘och tanasini ko‘rmaslik uchun yuzlarini teskari
o‘girib, uning ustini kiyim bilan yopib qo‘ydilar. 24 Nuh o‘ziga kelgach, kenja o‘g‘lining*
qilmishini bildi. 25 Shunda Nuh dedi:

“Kan’on* la’nati bo‘lsin!
Qullarning ham quli bo‘lsin akalariga!*”

26 Nuh yana dedi:

“Somning Xudosi — Egamizga
Hamdu sanolar bo‘lsin.
Kan’on Somga qul bo‘lsin!
27 Xudo Yofasga mo‘l yer bersin*,
Uning nasli Somning xalqi bilan yashasin!
Kan’on Yofasga qul bo‘lsin!”

28 Nuh to‘fondan keyin 350 yil yashadi. 29 U 950 yoshida olamdan o‘tdi.

10–BOB

Nuhdan tarqalgan dunyo xalqlari

1 Nuhning o‘g‘illari Som, Xom va Yofas to‘fondan keyin o‘g‘illar ko‘rdilar. Ularning nasl–nasabi va ulardan kelib chiqqan xalqlar* tarixi quyidagichadir:

Yofasdan kelib chiqqan xalqlar

2 Yofas nasli: Go‘mer, Mago‘g, Moday, Yovon, Tuval, Meshex, Tiros va ulardan kelib chiqqan xalqlar.
3 Go‘mer nasli: Ashkanoz, Rifat, To‘xarmo va ulardan kelib chiqqan xalqlar.
4 Yovon nasli: Elishox, Tarshish, Kit, Ro‘don* va ulardan kelib chiqqan xalqlar.
5 Yovon nasli dengiz bo‘ylariga tarqalib joylashdi.

Ular* har xil qabilalarga va yurtlarga bo‘lindilar, har bir qabilaning o‘z tili bor edi.

Xomdan kelib chiqqan xalqlar

6 Xom nasli: Kush*, Mizra*, Fut, Kan’on va ulardan kelib chiqqan xalqlar.
7 Kush nasli: Savo, Xavila, Sabto, Ramo, Sabtaxo va ulardan kelib chiqqan xalqlar.
Ramo nasli: Shava, Dedon va ulardan kelib chiqqan xalqlar.

8 Kushning naslida yana Nimro‘d degani ham bor edi. Nimro‘d yer yuzidagi birinchi buyuk jangchi edi. 9 Egamizning nazarida u shu qadar buyuk ovchi ediki, uning ismi hikmat bo‘lib qoldi. Odamlar mohir ovchi haqida gapirganda: “Egamizning nazaridagi Nimro‘dga o‘xshagan buyuk ovchi” deb aytadigan bo‘lishdi. 10 Nimro‘d shohligining ilk markazi Shinar yeridagi* Bobil, Erax, Akkad shaharlarining hammasini* o‘z ichiga olgan edi. 11 Nimro‘d o‘sha yerdan Ossuriyaga borib*, Naynavo*, Rexobo‘t–Ir, Kolax, 12 Rasan shaharlarini qurdirdi. Rasan shahri Kolax va buyuk Naynavo shaharlari orasida joylashgan edi.

13 Mizra nasli: Lud, Onom, Laxov, Naftux, 14 Patro‘s, Kasluv, Xafto‘r va ulardan kelib chiqqan xalqlar. Kasluvdan Filist xalqi kelib chiqdi*.
15 Kan’on nasli: Kan’onning to‘ng‘ich o‘g‘li Sidon, Xet va ulardan kelib chiqqan xalqlar. 16 Kan’ondan Yobus, Amor, Girgosh, 17 Xiv, Oruq, Sin, 18 Arvod, Zamar va Xomat xalqlari ham kelib chiqdi.

Natijada Kan’on urug‘lari chegaradan tashqariga tarqalib ketdi. 19 Kan’onning chegaralari shimoldagi Sidondan boshlab Garor tomonga — janubdagi G‘azogacha, so‘ngra sharqdagi Sado‘m, G‘amo‘ra, Adma, Zavo‘yim tomonga — to

Leshagacha cho‘zilgan edi.

20 Xomning nasli ana shulardan iborat edi. Ular har xil qabilalarga va
yurtlarga bo‘lindilar, har bir qabilaning o‘z tili bor edi.

Somdan kelib chiqqan xalqlar

21 Yofasning akasi Som ham farzandlar ko‘rdi. U jamiki Ibir* naslining ota–
bobosi bo‘ldi.

22 Som nasli: Elam, Oshur, Arpaxshod, Lud, Oram va ulardan kelib chiqqan
xalqlar.
23 Oram nasli: Uz, Xul, Geter, Meshex* va ulardan kelib chiqqan xalqlar.

24 Arpaxshodning Shilax degan o‘g‘li* bor edi. Shilaxning Ibir degan o‘g‘li bor
edi. 25 Ibir ikki o‘g‘il ko‘rdi: birinchisining ismini Palax qo‘ydi, chunki uning
davrida dunyo bo‘linib ketdi*. Ikkinchisining ismi Yoxton edi.

26 Yoxtonning nasli: Elmo‘dod, Shalaf, Xazormavat, Yorax, 27 Hadoram, Uzol, Dikla,
28 Obal, Abumayl, Shava, 29 Ofir, Xavila, Yo‘vov va ulardan kelib chiqqan
xalqlar.

Yoxtonning nasli mana shular edi. 30 Bu xalqlar yashagan hudud Meshadan
tortib, sharqdagi Safor qirlari tomongacha cho‘zilgan edi.

31 Somning nasli ana shulardan iborat edi. Bu xalqlar har xil qabilalarga va
yurtlarga bo‘lindilar, har bir qabilaning o‘z tili bor edi.

32 Nuhning o‘g‘illaridan paydo bo‘lgan nasllar, nasabnomasi bo‘yicha, alohida–
alohida xalqlar sifatida ro‘yxat qilingan edi. To‘fondan keyin yer yuzida mana shu
xalqlar o‘rnashdi.

11–BOB

Bobil minorasi

1 Butun yer yuzida bitta til bo‘lib, hamma odamlar bir xil so‘zlashardilar. 2 Odamlar
sharqdan* ko‘chib, Shinar yeridagi* bir tekislikka keldilar va o‘sha yerda joylashdilar.
3 Odamlar bir–birlariga: “Kelinglar, g‘isht quyib, yaxshilab pishiraylik”, dedilar. Shunday
qilib, ular qurilish uchun g‘ishtdan, qorishma uchun qora saqichdan foydalanadigan
bo‘ldilar. 4 Keyin odamlar aytdilar: “Kelinglar, o‘zimiz uchun shahar quraylik, shahar
minorasining cho‘qqilari osmonga tegib tursin. Shu tariqa nom tarataylik. Aks holda, biz
butun yer yuziga tarqalib ketamiz.” 5 Odamlar qurayotgan shaharni va minorani ko‘rish
uchun Egamiz pastga tushdi. 6 Egamiz dedi: “Qaranglar, hammasi bitta xalq,
hammasining tili bir! Bu hali ular qilmoqchi bo‘lgan ishning boshlanishi, xolos.
Hademay, ular ko‘ngliga kelgan ishni qilishga qodir bo‘ladilar. 7 Qani, pastga tushaylik–
da, ularning tilini aralashtirib yuboraylik, toki birining gapini ikkinchisi tushunolmay
qolsin.” 8 Shunday qilib, Egamiz ularni o‘sha yerdan butun yer yuzi bo‘ylab tarqatib
yubordi. Odamlar shahar qurilishini to‘xtatdilar. 9 Egamiz hamma odamlarning tilini

oʻsha yerda chalkashtirib, ularning oʻzlarini butun yer yuziga tarqatib yuborgani uchun shaharning nomi Bobil* boʻlib qoldi.

Somning avlodlari

10 Somning nasl–nasabi tarixi quyidagichadir:

Som 100 yoshga kirganda, oʻgʻli Arpaxshodni koʻrgan edi*. Arpaxshod
tugʻilganda, toʻfon boʻlib oʻtganiga ikki yil boʻlgan edi. 11 Arpaxshod tugʻilgandan
keyin, Som 500 yil yashab, yana oʻgʻil–qizlar koʻrdi.
12 Arpaxshod 35 yoshida oʻgʻli Shilaxni koʻrgan edi*. 13 Shilax tugʻilgandan
keyin, Arpaxshod 403 yil yashab, yana oʻgʻil–qizlar koʻrdi.
14 Shilax 30 yoshida oʻgʻli Ibirni koʻrgan edi. 15 Ibir tugʻilgandan keyin, Shilax
403 yil yashab, yana oʻgʻil–qizlar koʻrdi.
16 Ibir 34 yoshida oʻgʻli Palaxni koʻrgan edi. 17 Palax tugʻilgandan keyin, Ibir
430 yil yashab, yana oʻgʻil–qizlar koʻrdi.
18 Palax 30 yoshida oʻgʻli Ravuni koʻrgan edi. 19 Ravu tugʻilgandan keyin, Palax
209 yil yashab, yana oʻgʻil–qizlar koʻrdi.
20 Ravu 32 yoshida oʻgʻli Sarugʻni koʻrgan edi. 21 Sarugʻ tugʻilgandan keyin,
Ravu 207 yil yashab, yana oʻgʻil–qizlar koʻrdi.
22 Sarugʻ 30 yoshida oʻgʻli Naxoʻrni koʻrgan edi. 23 Naxoʻr tugʻilgandan keyin,
Sarugʻ 200 yil yashab, yana oʻgʻil–qizlar koʻrdi.
24 Naxoʻr 29 yoshida oʻgʻli Terahni koʻrgan edi. 25 Terah tugʻilgandan keyin,
Naxoʻr 119 yil yashab, yana oʻgʻil–qizlar koʻrdi.
26 Terah 70 yoshdan oʻtgandan keyin oʻgʻillari Ibrom*, Naxoʻr va Xaronni
koʻrgan edi.

Terahning avlodlari

27 Terahning nasl–nasabi tarixi quyidagichadir:

Terahdan Ibrom, Naxoʻr va Xaron tugʻildilar. Xarondan Lut tugʻildi. 28 Terah hali
hayot ekan, Xaron oʻzining tugʻilgan yurtida — Xaldeydagi Ur shahrida* otasidan oldin
olamdan oʻtdi. 29 Ibrom — Soray* degan qizga, Naxoʻr — Milxo degan qizga uylandilar.
Milxo Xaronning qizi edi. Milxoning Iskax degan singlisi ham bor edi. 30 Soray bepusht
boʻlib, bolasi yoʻq edi.
31 Terah oʻgʻli Ibromni, Xaronning oʻgʻli — nabirasi Lutni, Ibromning xotini — kelini
Sorayni ergashtirib, Xaldeydagi Ur shahridan chiqib, Kan’on yurtiga qarab yoʻl oldi. Ular
Xoron shahriga* kelishgach, oʻsha yerda oʻrnashdilar. 32 Terah 205 yoshida Xoronda
olamdan oʻtdi.

12–BOB

Xudo Ibromni tanlaydi

1 Shundan keyin Egamiz Ibromga* dedi: “Oʻz yurtingdan, qarindosh–urugʻlaring
oldidan — otang xonadonidan chiqib ket. Men senga bir yurtni koʻrsataman, oʻsha yerga
borasan.

2 Buyuk xalqning otasi qilaman seni,

Baraka beraman senga,
Ulug‘ qilaman sening nomingni,
Baraka manbai bo‘lasan sen.
3 Men baraka berarman seni duo qilganlarga,
Seni la’natlaganlarni Men la’natlayman.
Sen orqali baraka toparlar
Yer yuzidagi jamiki xalqlar.”

4 Egamiz amr qilganday, Ibrom ketdi. Lut ham Ibrom bilan birga ketdi. Ibrom Xorondan* chiqib ketganda, yetmish besh yoshda edi. 5 Ibrom xotini Sorayni*, jiyani Lutni, Xoronda xizmatga olgan odamlarini boshlab, to‘plagan jamiki mol–mulkini olib, Kan’on yurtiga qarab yo‘lga tushdi. Nihoyat, ular Kan’on yurtiga yetib kelishdi. 6 Ibrom bu yurtda ko‘chib yurib, Shakam* yaqinidagi Mo‘re nomli muqaddas eman daraxti* yoniga yetib kelib to‘xtadi. O‘sha paytlarda bu yurtda Kan’on xalqi yashardi. 7 Shu yerda Egamiz Ibromga zohir bo‘lib: “Mana shu yurtni sening naslingga beraman”, dedi. Shunday qilib, Ibrom zohir bo‘lgan Egamizga atab o‘sha yerda qurbongoh qurdi.
8 Shundan so‘ng Ibrom Baytilning sharqidagi qirlarga yo‘l oldi. Baytil bilan Ay shaharlarining o‘rtasida* chodir tikdi. Chodirdan g‘arb tomonda Baytil, sharq tomonda Ay shaharlari bor edi. Bu yerda u qurbongoh qurib, Egamizga sajda qildi. 9 Ibrom u joydan bu joyga ko‘chib, janubga — Nagav cho‘liga* ketdi.

Ibrom Misrda

10 O‘sha paytda Kan’onda qahatchilik haddan ortiq avjiga chiqdi. Shuning uchun Ibrom, qahatchilik tugaguncha kutib turay deb, Misrga yo‘l oldi. 11 Ibrom Misr chegarasiga yaqinlashganda, xotini Sorayga dedi:
— Sen juda ham go‘zal ayolsan. 12 Misrliklar seni ko‘rganlarida: “Manavi ayol — uning xotini”, deb aytishadi. Meni o‘ldirib, seni tirik qoldirishadi. 13 Sen, uning singlisiman, deb aytgin, toki sen tufayli Misrliklar menga yaxshi munosabatda bo‘lsinlar, jonimga rahm qilsinlar.
14 Ibrom Misrga kirib kelganda, Sorayning go‘zalligi hammaning og‘zida duv–duv gap bo‘ldi. 15 Saroy a’yonlari ham Sorayni ko‘rishgach, uni fir’avnga rosa maqtashdi. Shunday qilib, Sorayni fir’avnning saroyiga olib kelishdi. 16 Fir’avn Soray tufayli Ibromga ham ko‘p muruvvat qildi: mol–qo‘y, eshaklar, qul va cho‘rilar, tuyalar in’om qildi.
17 Lekin fir’avn Sorayni o‘z haramiga olmoqchi bo‘lgani uchun, Egamiz fir’avn xonadoniga dahshatli o‘lat kasalligini yubordi. 18 Fir’avn Ibromni chaqirtirib kelib, unga dedi:
— Bu nima qilganing? Nima qilib qo‘yding meni? Nimaga Soray xotining ekanini menga aytmading? 19 Nimaga, u mening singlim, deb aytding? Gapingga ishonib, uni o‘zimga xotin qilib olmoqchi bo‘ldim–a! Mana xotining, ol–da, ko‘zimdan yo‘qol!
20 Fir’avn o‘z odamlariga farmon bergan edi, ular Ibromni xotini, hamma odamlari va mol–mulki bilan birga yurtdan chiqarib yubordilar.

13–BOB

Ibrom va Lut bir–biridan ayriladi

1 Shunday qilib, Ibrom* xotinini, jiyani Lutni va bor mol–mulkini olib, Misrdan chiqdi

va shimolga — Nagav choʻliga* yoʻl oldi.
2 Ibrom endi juda boyib ketgan, mol–qoʻylari, kumushu oltini koʻp edi. 3 U Nagav
choʻlidan Baytilga borguncha bir joydan ikkinchi joyga koʻchib yurdi. Nihoyat, Baytil
bilan Ay oraligʻiga* yetib keldi. U oldin ham shu yerda chodir tikib, 4 qurbongoh qurgan
edi. Ibrom oʻsha yerda yana Egamizga sajda qildi. 5 Ibrom bilan birga ketayotgan Lut
ham juda boy boʻlib, mol–qoʻylari, koʻplab chodirlari bor edi. 6 Ikkovlari chorvasi bilan
bir joyda yashashlari uchun yer torlik qilib qoldi. 7 Qolaversa, Ibromning choʻponlari
bilan Lutning choʻponlari oʻrtasida janjal chiqib qoldi. Bu paytda oʻsha yurtda Kanʼon va
Pariz xalqlari yashardilar.
8 Shunda Ibrom Lutga dedi:
— Mening choʻponlarim bilan sening choʻponlaring oʻrtasida janjal boʻlmasligi kerak.
Axir, biz yaqin qarindoshlarmiz. 9 Nima qilishimiz lozimligini men senga aytay. Sen
mana shu yerdan yaxshi joyini keragicha tanlab ol, keyin bir–birimizdan ajralaylik. Agar
sen chap tomonga ketsang, men oʻng tomonga ketaman, agar sen oʻng tomonga ketsang,
men chap tomonga ketaman.
10 Lut Zoʻvar tomondagi Iordan vodiysining serhosil tekisliklariga qaradi. Hamma
yoq sersuv, goʻyo Egamiz yaratgan boqqa* va Misrning ajoyib yerlariga oʻxshardi.
Egamiz Sadoʻm va Gʻamoʻra shaharlarini vayron qilmasdan oldin vodiy shunaqa edi.
11 Shunday qilib, Lut Iordan tekisliklarini tanladi va sharq tomonga ketdi. Shu tariqa
Ibrom bilan Lut bir–biridan ayrildilar. 12 Ibrom Kanʼon yurtida oʻrnashdi, Lut esa Iordan
tekisliklaridagi shaharlar orasiga oʻrnashib, chodirlarini Sadoʻm yoniga koʻchirdi.
13 Sadoʻm aholisi oʻta qabih boʻlib, Egamizga qarshi ogʻir gunohlar qilar edilar.

Ibrom Xevronga koʻchadi

14 Lut Ibromdan ayrilib ketgandan keyin, Egamiz Ibromga dedi:
— Mana shu turgan joyingdan shimolga, janubga, sharqqa va gʻarbga qara. 15 Sen
koʻrib turgan hamma yerni senga va sening naslingga abadiy mulk qilib beraman. 16 Men
sening naslingni yerdagi qumday koʻpaytiraman. Kimki yerdagi qumni sanay olsa,
sening naslingni ham sanay oladi. 17 Qani, otlan, yurtni aylanib chiq. Men bu yurtni senga
mulk qilib beraman.
18 Shunday qilib, Ibrom chodirini yigʻishtirib, Xevrondagi* Mamre nomli muqaddas
emanzor* yoniga keldi va oʻsha yerda oʻrnashdi. U yerda Egamizga qurbongoh qurdi.

14–BOB

Ibrom Lutni qutqaradi

1 Oʻsha paytda Shinarda* Omrafil, Elazarda Oriyox, Elamda Kadoʻrlamar va Goʻyimda
Tidol hukmronlik qilar edilar. 2 Ular ittifoq tuzib, quyidagi beshta shohga qarshi urush
ochdilar: Sadoʻm shohi Beraga, Gʻamoʻra shohi Birshaga, Adma shohi Shinavga, Zavoʻyim
shohi Shemoverga va Belax shohiga. (Belax hozir Zoʻvar deb yuritiladi.) 3 Ana shu beshta
shoh ittifoq tuzib, Siddim vodiysida kuchlarini birlashtirgandilar. (Siddim vodiysi
hozirgi Oʻlik dengizdir*.) 4 Bu shohlar oʻn ikki yil davomida Kadoʻrlamarga qaram boʻlib
kelgandilar. Oʻn uchinchi yili esa unga qarshi isyon koʻtargandilar.
5 Isyondan bir yil oʻtgandan keyin Kadoʻrlamar va uning ittifoqchilari lashkarlari
bilan kelib, Ashtaroʻt–Karnayimdagi Rafa xalqini, Xomdagi Zuz xalqini, Xiratayim
tekisligidagi Eyim xalqini, 6 Seir* togʻlaridagi Xorim xalqini* choʻlning chetidagi El–

Porongacha ta’qib qilib borib, mag‘lub qildilar. 7 So‘ngra ular orqaga qaytib, En–Mishpat
shahriga keldilar va Omoleklarning butun yerlarini, shuningdek, Xazazon–Tamarda
yashayotgan Amor xalqini qo‘lga oldilar. (En–Mishpat hozir Kadesh deb yuritiladi.) 8-
9 Sado‘m, G‘amo‘ra, Adma, Zavo‘yim va Belax, ya’ni Zo‘var shohlari o‘z lashkarlarini
Siddim vodiysida* saf torttirib, Elam shohi Kado‘rlamarning va Go‘yim, Shinar va Elazar
shohlarining lashkarlariga qarshi jangga tayyor qilib qo‘ydilar. Xullas, to‘rtta shoh
beshta shohga qarshi otlandi. 10 Vodiyda qora saqich to‘ldirilgan chuqurlar ko‘p edi.
Sado‘m va G‘amo‘ra shohlari qochib ketayotganlarida, ularning jangchilari o‘sha
chuqurlarga yiqilib tushdilar. Tirik qolganlari tog‘larga qochib qutulib qoldilar.
11 Shunday qilib, bosqinchilar Sado‘m va G‘amo‘rani talon–taroj qilib, u yerdagi hamma
boyliklarni, g‘amlab qo‘yilgan oziq–ovqatlarni olib, o‘z yo‘llariga ketdilar. 12 Ibromning*
jiyani Lut Sado‘mda yashayotgan edi. Bosqinchilar Lutni asirga olib, bor narsasini o‘lja
qilib oldilar.
13 Bir odam bosqinchilardan qutulib, ibroniy Ibromning yoniga qochib bordi va
bo‘lgan voqeani unga so‘zlab berdi. Ibrom bu paytda Amor xalqidan bo‘lgan Mamre
degan odamning emanzori* yonida chodir tikkan edi. Mamre va uning Eshko‘l, Onar
degan ukalari* Ibromning ittifoqchilari edilar. 14 Ibrom Lutning asirga olinganini
eshitgach, o‘z xonadonidagi qurol ushlashga qodir hamma odamlarni to‘pladi. Ular 318
kishi edi. U Kado‘rlamarning lashkari ortidan quvib, Dan shahrida* ularga yetib oldi.
15 Ibrom o‘sha yerda odamlarini guruhlarga bo‘lib, tunda har tomondan ularga hujum
qildi. Kado‘rlamarning lashkari qochdi, lekin Ibrom ularni Damashqning shimolidagi
Xo‘vax shahrigacha quvlab bordi. 16 Ibrom bilan uning ittifoqchilari hamma narsani —
o‘lja olingan narsalarni, Ibromning jiyani Lutni va uning mol–mulkini, ayollarni va
boshqa asirlarni qaytarib olib keldilar.

Maliksidiq Ibromni duo qiladi

17 Ibrom Kado‘rlamar va uning ittifoqchilari ustidan g‘alaba qilib qaytib
kelayotganda, Sado‘m shohi uni kutib olgani Shovey soyligiga keldi. (Shovey soyligi Shoh
soyligi* deb ham atalgan.)
18 Salim* shohi Maliksidiq ham Ibromni kutib olgani chiqib, non va sharob olib keldi.
U Xudoyi Taoloning ruhoniysi ham edi. 19 Maliksidiq Ibromni shunday deb duo qildi:

> “Yeru ko‘kni yaratgan* Xudoyi Taolo
> Ibromga baraka bersin.
> 20 Yovlaringni qo‘lingga bergan Xudoyi Taologa
> Hamdu sanolar bo‘lsin.”

Ibrom qaytarib olib kelgan hamma narsaning o‘ndan birini Maliksidiqqa berdi.
21 So‘ngra Sado‘m shohi Bera Ibromga shunday dedi:
— Odamlarimni o‘zimga qaytarib bersang bo‘ldi, qaytarib olib kelgan hamma
narsani o‘zingga olaver.
22 Lekin Ibrom Sado‘m shohiga shunday javob berdi:
— Yeru ko‘kni yaratgan Egamiz — Xudoyi Taolo haqi qasam ichib aytamanki, 23 men
sening birorta cho‘pingni yoki chorig‘ingning ipini ham olmayman. Aks holda: “Ibromni
men boy qilganman”, deb aytishing mumkin. 24 Yigitlarimning yeb–ichganidan tashqari,
men sendan hech narsa olmayman. Men bilan birga borgan ittifoqchilarim Onar, Eshko‘l

va Mamre esa o‘zlarining ulushlarini olishsin.

15–BOB

Xudo Ibrom bilan ahd qiladi

1 Shundan keyin Egamiz Ibromga* shu so‘zlarni vahiyda ayon qildi:
— Qo‘rqma, Ibrom, Men senga qalqon bo‘laman, senga beradigan mukofotim buyuk bo‘ladi.
2 — Ey Egam Rabbiy! Sen menga nima ham berar eding?! Men hamon befarzandman, butun mol–mulkim Damashqlik xizmatkorim Eliazarga qoladi. 3 Sen menga farzand bermading, shuning uchun xonadonimda tug‘ilgan qulim mening merosxo‘rim bo‘ladi–da.
4 Lekin Ibromga Egamiz yana shu so‘zlarni ayon qildi:
— Yo‘q, quling sening merosxo‘ring bo‘lmaydi, o‘zingning pushti kamaringdan bo‘ladigan o‘g‘ling sening hamma mol–mulkingga merosxo‘r bo‘ladi.
5 So‘ngra Egamiz Ibromni tashqariga olib chiqib, unga:
— Osmonga qara, agar yulduzlarni sanay olsang, sanab ko‘r, — dedi.
Egamiz yana aytdi:
— Sening nasling ham o‘sha yulduzlarga o‘xshagan ko‘p bo‘ladi.
6 Ibrom Egamizga ishondi, Egamiz uni ishonchi uchun solih deb bildi.
7 So‘ngra Egamiz unga dedi:
— Men sening Egangman, bu yurtni senga mulk qilib bermoqchiman, shuning uchun seni Xaldeydagi Ur shahridan* olib chiqqanman.
8 — Ey Egam Rabbiy! Bu yurtni meros qilib olishimga qanday ishonch hosil qilaman? — deb so‘radi Ibrom.
9 — Menga uch yoshli g‘unajin, uch yoshli echki, uch yoshli qo‘chqor, kaptar, musichani olib kel, — dedi Egamiz.
10 Egamiz nima aytgan bo‘lsa, hammasini Ibrom olib kelib, so‘ydi. Hayvonlarni uzunasiga o‘rtasidan bo‘lib, bo‘laklarni bir–biriga qaratib qo‘ydi. Lekin qushlarni ikkiga bo‘lmadi. 11 Quzg‘unlar go‘shtlarni yeyish uchun qo‘nganda, Ibrom quzg‘unlarni haydadi.
12 Quyosh botayotganda, Ibromni qattiq uyqu bosdi. Uni qo‘rquv, vahima qamrab oldi. 13 Shunda Egamiz Ibromga aytdi:
— Shuni yaxshi bilib qo‘yki, sening nasling begona yurtda musofir bo‘lib yashaydi. To‘rt yuz yil qul bo‘lib, jabr–zulm tortadi. 14 Lekin Men sening naslingni qul qilgan xalqni jazolayman. Sening nasling begona yurtdan katta boylik bilan chiqib ketadi. 15 Sen juda ham keksayib olamdan o‘tib, dafn etilasan, ota–bobolaring yoniga xotirjam ketasan.
16 Sening nasling to‘rt avlod o‘tgandan keyin* bu yerga qaytib keladi, chunki Amor xalqlarining qabihligi hali haddan oshmadi*.
17 Quyosh botib, qorong‘i tushgandan keyin, Ibrom ichidan tutun chiqib turgan tog‘orani va yonayotgan mash’alani ko‘rdi. O‘sha tog‘ora va mash’ala bo‘g‘izlangan hayvon bo‘laklari orasidan o‘tdi*. 18 Shunday qilib, o‘sha kuni Egamiz Ibrom bilan ahd qildi va shunday dedi:
— Men sening naslingga Misrdagi daryodan* tortib buyuk Furot daryosigacha bo‘lgan joylarni 19 — Xayin, Xanaz, Kadmon, 20 Xet, Pariz, Rafa, 21 Amor, Kan’on, Girgosh, Yobus xalqlarining yerlarini beraman.

16–BOB

Hojar va Ismoil

1 Ibromning* xotini Soray* hamon bola ko‘rmas edi. Soray Misrlik Hojar degan bir
ayolni cho‘ri qilib olgan edi. 2 Bir kuni Soray Ibromga aytdi:
— Egamiz meni farzanddan qisdi. Endi cho‘rimning yoniga kiravering. Balki u orqali
farzandli bo‘larman*.
Ibrom Sorayning taklifiga rozi bo‘ldi. 3 Shunday qilib, Ibromning xotini Soray Misrlik
cho‘risi Hojarni eriga xotin* qilib olib berdi. Bu voqea yuz berganda, Ibrom Kan’on
yurtiga kirganiga o‘n yil bo‘lgan edi. 4 Ibrom Hojarning yoniga kirdi. Hojar homilador
bo‘ldi. Hojar homiladorligini bilgach, bekasi Sorayni nazar–pisand qilmay qo‘ydi.
5 Shunda Soray Ibromga dedi:
— Cho‘rimga imtiyoz berib, o‘zim uni sizning qo‘yningizga solib qo‘ydim. Endi u
homilador bo‘lib, meni nazariga ilmay qo‘ydi–ya. Bularning hammasiga siz aybdorsiz!*
Xudoga soldim, qay birimizning haq ekanimizni Xudo hal qilsin!
6 Ibrom Sorayga:
— Hozir ham u sening cho‘ring, unga istaganingni qilaver, — deb javob berdi. Soray
Hojarga shunaqangi shafqatsizlik qildiki, Hojar qochib ketishga majbur bo‘ldi.
7 Egamizning farishtasi sahrodagi buloq yonida — Shurga* boradigan yo‘l bo‘yida
Hojarni topdi.
8 — Ey Hojar, Sorayning cho‘risi! Qayerdan kelib, qayerga ketyapsan? — deb so‘radi.
— Bekam Soraydan qochib kelyapman, — deb javob berdi Hojar.
9 — Bekangning yoniga qayt, unga itoat et, — dedi Egamizning farishtasi Hojarga.
10 — Sening naslingni shu qadar ko‘p qilamanki, ko‘pligidan hech kim sanay olmaydi.
11 Egamizning farishtasi Hojarga yana gapirdi:

“Sen homiladorsan va tuqqaysan o‘g‘il,
Egamiz eshitdi jafolaringni,
Uning ismini qo‘ygaysan Ismoil*.
12 O‘g‘ling bo‘lg‘ay asov eshakday,
Uning qo‘li ko‘tarilgay hammaga qarshi
Va hammaning qo‘li — unga qarshi,
Qarindoshlari bilan dushman bo‘lib yashagay*.”

13 Hojar: “Meni ko‘radigan Xudoni ko‘rdim–a!”* dedi. Shuning uchun u o‘ziga
gapirgan Egamizga: “Meni ko‘radigan Xudosan”* deb nom berdi. 14 Shuning uchun bu
quduqqa Ber–Laxay–Ruy* deb nom berilgan. Quduq Kadesh bilan Barid orasida
joylashgan.
15 Hojar Ibromga o‘g‘il tug‘ib berdi, Ibrom bu bolaga Ismoil deb ism qo‘ydi. 16 Bu
paytda Ibrom sakson olti yoshda edi.

17–BOB

Ahd belgisi — sunnat

1 Ibrom* to‘qson to‘qqiz yoshga kirganda, Egamiz unga zohir bo‘lib, dedi:

— Men Qodir Xudoman. Men koʻrsatgan yoʻldan yur, har doim pokdil boʻlib
yashagin. 2 Men sen bilan ahd qilaman, senga juda koʻp nasllar ato qilaman.
3 Ibrom yerga muk tushib ta’zim qildi. Keyin Xudo unga aytdi:
4 — Sen bilan qiladigan ahdim shudir: sen koʻplab xalqlarning otasi boʻlasan. 5 Endi
sening ismingni oʻzgartiraman. Isming endi Ibrom emas, Ibrohim* boʻladi. Chunki Men
seni koʻplab xalqlarning otasi qilaman. 6 Seni juda ham barakali qilaman, sendan xalqlar
yarataman, sendan shohlar kelib chiqadi. 7 Men senga va sendan keyingi nasllaringga
bergan va’damda turaman. Bu abadiy ahd boʻladi. Men doimo Sening Xudoying, sendan
keyingi nasllaringning Xudosi boʻlib qolaman. 8 Sen musofir boʻlib yashab turgan mana
shu Kan’on yurtining hammasini Men senga va nasllaringga abadiy mulk qilib beraman.
Men ularning Xudosi boʻlaman.
9 Xudo Ibrohimga yana dedi:
— Sen va sendan keyingi nasllaring avlodlar osha Men bilan qilgan ahdga rioya
qilishlaringiz lozim. 10 Sen va sening nasllaring rioya qilishlaringiz kerak boʻlgan ahdim
quyidagichadir: orangizdagi har bir erkak sunnat qilinsin. 11 Sunnat — sen bilan Mening
oʻrtamizdagi ahdning belgisi boʻladi. 12 Hozirdan boshlab nasllar osha xonadoningdagi
har bir oʻgʻil bola tugʻilgandan keyin sakkiz kun oʻtgach, sunnat qilinsin. Bu faqat sening
oila a’zolaringgagina tegishli boʻlmay, balki xonadoningda tugʻilgan xizmatkorlaringga
va sening naslingdan boʻlmagan, begonalardan sotib olgan xizmatkorlaringga ham
tegishlidir. 13 Xonadoningda tugʻilgan xizmatkorlaring ham, sotib olingan
xizmatkorlaring ham sunnat qilinsin. Shunday qilib, Mening sen bilan qilgan ahdim
abadiy ekanini tanangizdagi belgi koʻrsatib turadi. 14 Sunnat qilinmagan erkak xalqim
orasidan yoʻq qilinsin. U Mening ahdimni buzgan hisoblanadi.
15 Xudo Ibrohimga yana aytdi:
— Xotining Sorayga kelsak, uning ismi bundan keyin Soray boʻlmasin. Hozirdan
boshlab uni Sora* deb chaqir. 16 Men Soraga marhamat koʻrsataman. Men undan senga
oʻgʻil ato qilaman. Ha, Men Soraga shunchalik baraka beramanki, u koʻp xalqlarning
onasi boʻladi. Uning nasllari orasidan shohlar chiqadi.
17 Ibrohim muk tushib ta’zim qildi, keyin kulib qoʻydi–da, oʻziga oʻzi dedi: “Yuz
yoshga kirgan odam bola koʻrar ekanmi?! Buning ustiga, Sora ham toʻqsonga kirdi, endi
bola tugʻarmidi?!” 18 Ibrohim Xudoga:
— Qaniydi, Ismoil Sening marhamating ostida yashasa, — dedi.
19 — Yoʻq, xotining Sora senga oʻgʻil tugʻib beradi, — dedi Xudo. — Sen oʻgʻlingning
otini Is’hoq* qoʻyasan. Men oʻgʻling bilan va uning kelgusi nasli bilan abadiy ahdimni
davom ettiraman. 20 Ismoil toʻgʻrisida qilgan iltimosingni ham eshitdim. Men unga
baraka beraman, uning naslini haddan tashqari koʻpaytiraman. U oʻn ikki
yoʻlboshchining otasi boʻladi. Undan buyuk xalq keltirib chiqaraman. 21 Lekin Men Oʻz
ahdimni tugʻiladigan oʻgʻling Is’hoq bilan qilaman. Kelgusi yili xuddi shu paytda Sora
senga Is’hoqni tugʻib beradi.
22 Xudo Ibrohim bilan gaplashib boʻlgach, uning yonidan ketdi.
23 Oʻsha kuniyoq Ibrohim Xudo amr etganday qildi: oʻgʻli Ismoilni, xonadonida
tugʻilgan xizmatkorlarini, begonalardan sotib olgan xizmatkorlarini — xonadonidagi
hamma erkakni sunnat qildi. 24 Ibrohim sunnat qilinganda, toʻqson toʻqqiz yoshda,
25 oʻgʻli Ismoil oʻn uch yoshda edi. 26 Ibrohim bilan oʻgʻli bir kunda sunnat qilindilar.
27 Shunday qilib, Ibrohimning xonadonidagi jamiki erkak zoti ham u bilan birga sunnat

qilindi.

18–BOB

Xudo Ibrohimga o‘g‘il va’da qiladi

1 Kunning jazirama issiq payti edi. Ibrohim Mamredagi muqaddas emanzorda*
chodiriga kiraverishda o‘tirgan edi, shu payt Egamiz unga zohir bo‘ldi. 2 Shu lahzada
Ibrohim ro‘parasida uchta odam turganini bildi. Ibrohim uchalasini ko‘rgan zahoti
ularni kutib olgani yugurib bordi va muk tushib ta’zim qildi.
3 — Hazratim*, — dedi Ibrohim, — marhamatingizni darig‘ tutmanglar, bu
qulingizning eshigini bosib o‘tib ketmanglar. 4 Xizmatkorlarim suv keltirishsin,
oyoqlaringizni yuvishsin, o‘zlaringiz daraxtning soyasida dam olinglar. 5 Modomiki, bu
qulingizning xonadoniga tashrif buyuribsizlar, men non–pon olib kelay. Sayohatingizni
davom ettirishdan oldin bardam bo‘lib olinglar.
— Mayli, — deyishdi ular, — aytganingday qilaver.
6 Ibrohim shoshilganicha chodirga qaytdi–da, Soraga dedi:
— Tez bo‘l! Unning yaxshisidan darrov bir tog‘ora* olib, non yop.
7 So‘ngra podaga borib, semiz buzoqni tanladi va xizmatkoriga berdi. Xizmatkor
darrov buzoqni so‘yib, taom tayyorlashga kirishdi. 8 U suzma, sut va pishirib
tayyorlangan buzoq go‘shtini olib, mehmonlarning oldiga qo‘ydi. Mehmonlar
ovqatlanishayotganda, Ibrohim daraxt ostida ularga o‘zi xizmat qilib turdi.
9 — Xotining Sora qayerda? — deb so‘rashdi ular.
— Shu yerda, chodirda, — deb javob berdi Ibrohim.
10 Ulardan biri*:
— Men kelgusi yili shu paytda* qaytib kelganimda, xotining Sora o‘g‘illi bo‘ladi, —
dedi. Sora chodir pardasining orqasida, chodirga kiraverish yonida bu suhbatni eshitib
turardi. 11 Bu paytda Ibrohim ham, Sora ham juda keksayib qolishgan, Sora bola tug‘ish
davridan ancha o‘tgan edi. 12 U ichida kulib, o‘zicha o‘yladi: “Men munkillagan kampir
bo‘lsam–u, qanday qilib lazzatlana olardim?! Buning ustiga, xo‘jayinim ham qarib qolgan
bo‘lsa.” 13 Shunda Egamiz* yana Ibrohimga aytdi:
— Nima uchun Sora kuldi? Nimaga u: “Qarib qolgan bo‘lsam, bola tug‘armidim”,
dedi? 14 Men — Egangiz uchun imkonsiz narsa bor ekanmi?! Kelgusi yil shu paytda Men
qaytib kelaman. O‘shanda Sora o‘g‘illi bo‘ladi.
15 Lekin Sora qo‘rqib ketgan edi.
— Kulmadim, — deb gapidan tondi u.
— Yo‘q, kulding, — dedi Egamiz.

Ibrohim Sado‘m uchun yolvoradi

16 Shundan keyin uchalovi o‘rinlaridan turib, Sado‘m tomonga yo‘l oldilar. Ibrohim,
ularni kuzatib qo‘yay deb, birga yurdi. 17 Egamiz: “Men qilmoqchi bo‘lgan ishlarimni
Ibrohimdan sir tutmayman”, dedi O‘ziga. 18 “Ibrohimdan buyuk, qudratli xalq kelib
chiqadi. Yer yuzidagi jamiki xalqlar u orqali baraka topadi. 19 Ibrohim o‘g‘illarini, o‘z
naslini Mening yo‘limdan yurishga, to‘g‘rilik va adolat bilan ish qilishlariga yo‘l
ko‘rsatsin deb, uni tanlaganman. Shunda Men Ibrohimga bergan va’damni bajaraman.”
20 So‘ngra Egamiz Ibrohimga dedi:
— Sado‘m va G‘amo‘ra aholisining razilligi, ularning og‘ir gunohlari haqidagi ohu

fig‘onlar Menga yetib keldi. 21 Men pastga tushib ko‘ray–chi, ularning hammasi
haqiqatan ham shunchalik gunohga botib ketibdimikan?!
22 Shundan keyin ikki kishi Sado‘mga qarab yo‘l oldi. Egamiz esa Ibrohim bilan qoldi.
23 Ibrohim Unga qarab, so‘radi:
— Sen gunohkorni ham, begunohni ham birday qirib tashlayverasanmi? 24 Aytaylik,
shaharda ellikta begunoh odam topsang, shaharni vayron qilaverasanmi? Begunoh
odamlarning haqi–hurmati uchun shaharga rahm qilmaysanmi? 25 Nahotki gunohsiz
odamni gunohkor bilan birga yo‘q qilsang?! Aslo! Sen gunohsizning boshiga
gunohkorning kunini solmaysan–ku! Axir, Sen butun olamning Hokimisan, adolat ila ish
tutasan!
26 — Agar Men Sado‘mda ellikta begunoh odamni topsam, — dedi Egamiz, —
ularning haqi–hurmati uchun butun shaharga rahm qilaman.
27 — Ey Rabbiy! Men tuproq va kul bo‘lsam ham, Senga gapirayotganimda
qo‘polligim uchun kechirgin, — dedi Ibrohim. 28 — Ellikta begunoh odamga beshta
yetmasa–chi? Beshta kam bo‘lgani uchun butun shaharni qirib tashlaysanmi?
— Agar u yerda qirq beshta solih odamni topsam, shaharni qirib tashlamayman.
29 Ibrohim Egamizga yana gapirdi:
— Balki u yerda qirqta begunoh odam topilar.
— O‘sha qirqta begunohning haqi–hurmati uchun bu ishni qilmayman, — dedi
Egamiz.
30 — Yo Rabbiy! — dedi Ibrohim. — Gapirsam, O‘zing kechirgaysan. Balki u yerda
o‘ttizta begunoh topilar?
— Agar u yerda o‘ttizta begunoh odamni topsam, shaharni qirib tashlamayman, —
deb javob berdi U.
31 — Rabbiy! Gapirayotganimda qo‘polligim uchun kechirgin, — dedi Ibrohim. —
Balki u yerda yigirmata begunoh odam topilar?
— O‘sha yigirmata begunoh odamning haqi–hurmati uchun shaharni qirib
tashlamayman, — dedi U.
32 — Rabbiy! Yana bir marta gapirsam, O‘zing kechirgaysan, — dedi Ibrohim. —
Balki u yerda o‘nta begunoh odam topilar?
— O‘sha o‘nta begunoh odamning haqi–hurmati uchun shaharni qirib
tashlamayman, — deb javob berdi Egamiz.
33 Egamiz Ibrohim bilan gaplashib bo‘lgach, O‘z yo‘liga ketdi. Ibrohim ham chodiriga
qaytdi.

19–BOB

Sado‘m aholisining gunohkorligi

1 O‘sha kuni kechqurun ikkala farishta* Sado‘mga yetib keldi. Lut Sado‘m darvozasi
yonida* o‘tirgan edi. Lut farishtalarni ko‘rib, ularga peshvoz chiqdi va muk tushib ta’zim
qildi.
2 — Janoblar, marhamat, shu kecha bu qulingizning uyiga kiringlar, oyoqlaringizni
yuvayin, menikida tunab qolinglar. Ertaga ertalab yo‘llaringizga ketsalaringiz ham
bo‘ladi.
— Rahmat, biz tunni shahar maydonida o‘tkazamiz, — deb aytishdi ular. 3 Lut hadeb

qistayvergandan keyin, farishtalar Lutnikiga kelishdi. Lut xizmatkorlariga non* yopib, ziyofat tayyorlashni buyurdi. Ziyofat tayyor bo‘lgach, ular ovqatlanishdi. 4 Lekin ular endi uxlashga yotmoqchi bo‘lib turganlarida, Sado‘m shahrining hamma erkagi — yoshu qarisi kelib, Lutning uyini o‘rab olishdi. 5 Ular Lutni chaqirishib, so‘rashdi:

— Bugun kechqurun sening uyingga kelgan odamlar qani? Ularni olib chiq bizning oldimizga! Ular bilan birga bo‘laylik.

6 Lut tashqariga chiqib, orqasidan eshikni yopib qo‘ydi.

7 — Birodarlarim! — dedi u, — o‘tinaman, zinhor bunday qabihlik qila ko‘rmanglar! 8 Mana, ikkita bokira qizim bor. Qizlarimni sizlarga olib chiqib berayin, ular bilan bilganlaringizni qilinglar. Lekin bu odamlarga tegmanglar, ular mening mehmonim, mening panohim ostidadirlar.

9 Lekin ular:

— Yo‘ldan qoch! — deb shovqin soldilar. — Sen o‘zingni kim deb o‘ylayapsan? Biz senga oramizdan joy berdik, endi esa bizga aql o‘rgatadigan bo‘lib qoldingmi?! Mana endi ko‘rasan. Anavi kelgan odamlarga qiladiganimizdan ham battarrog‘ini senga qilamiz!

Odamlar Lutni siqib kelib, eshikni sindirmoqchi bo‘ldilar. 10 Shu payt ichkaridagi ikkala farishta qo‘llarini tashqariga chiqarib, Lutni uyning ichkarisiga — yonlariga oldilar va eshikni yopdilar. 11 Keyin uyning eshigi oldida turgan hamma odamlarni — kattalarni ham, kichiklarni ham farishtalar ko‘r qilib qo‘ydilar. Shuning uchun odamlar eshikni topa olmay qoldilar.

Lut Sado‘mdan ketadi

12 Shundan keyin farishtalar Lutdan so‘rashdi:

— Bu shaharda sening yana kiming bor? Kuyovingmi, o‘g‘illaringmi, qizlaringmi — senga qarashli kim bo‘lsa ham, shahardan olib chiqib ket. 13 Biz shaharni butunlay qirib tashlaymiz. Bu shahar aholisining razilligiyu og‘ir gunohlari haqidagi ohu fig‘onlar Egamizga yetib bordi. “Bu shaharni qirib tashlanglar”, deb U bizni yubordi.

14 Shundan keyin Lut bo‘lajak kuyovlari oldiga borib:

— Tezda shahardan chiqib ketinglar! — dedi. — Egam bu shaharni qirib tashlamoqchi.

Lekin Lutning gapi kuyovlariga hazil bo‘lib tuyuldi. 15 Tong otgach, farishtalar Lutni shoshiltirishdi:

— Tez bo‘l! Xotining bilan ikkala qizingni olib, hoziroq bu yerdan jo‘na! Bo‘lmasa, shaharga qirg‘in kelganda, sizlar ham halok bo‘lasizlar!

16 Lut hali ham ikkilanib turganda, farishtalar Lutni, xotinini va ikkala qizini qo‘llaridan ushlab, shahar tashqarisiga olib chiqib qo‘ydilar. Chunki Egamiz shafqatli edi. 17 Farishtalar ularni shahar tashqarisiga olib chiqib qo‘yganlaridan keyin, ulardan biri ogohlantirdi:

— Qochinglar, jonlaringni qutqaringlar! Orqaga qaramanglar, vodiydagi biron joyda to‘xtamanglar! Toqqa qarab qochinglar! Bo‘lmasa, halok bo‘lasizlar!

18 — Yo‘q, Hazratim! — deb iltijo qildi Lut. 19 — Bu qulingizga ko‘p inoyat ko‘rsatdingiz, hayotimni qutqarib qoldingiz, menga ko‘p shafqat qildingiz. Lekin tog‘ juda ham uzoq. Men falokatga yo‘liqib, u yerga yetib borolmay o‘lib ketaman–ku! 20 Hov anavi shaharchani ko‘ryapsizmi? O‘zi kichkinagina shaharcha, uncha uzoq emas. Men

oʻsha yoqqa qochib bora qolay. Oʻshanda men jonimni saqlab qolaman.
21 — Boʻpti! — dedi farishta Lutga. — Sen aytganday boʻlsin. Oʻsha kichkina shaharni
yoʻq qilmayman. 22 Tez boʻl, oʻsha yoqqa qoch! Sen oʻsha shaharga yetib
bormaguningcha, men hech narsa qilolmayman.
Lut shaharni kichkina degani uchun, bu shahar Zoʻvar* deb yuritiladigan boʻldi.
23 Quyosh chiqayotganda, Lut Zoʻvarga yetib keldi.

Sadoʻm va Gʻamoʻra vayron qilinadi

24 Shundan keyin Egamiz Sadoʻm va Gʻamoʻra shaharlari ustiga yonayotgan
oltingugurt yogʻdirdi. 25 Yonayotgan oltingugurt bu shaharlar qatorida vodiydagi hamma
shaharlarni aholisiyu oʻt–oʻlanlari bilan birga qirib tashladi. 26 Lutning ortidan xotini
kelayotgan edi. Xotini orqasiga qaragan edi, tuz ustuniga aylanib qoldi.
27 Keyingi kuni ertalab Ibrohim Egamiz bilan gaplashgan joyga qaytib bordi.
28 Sadoʻm, Gʻamoʻra va butun vodiyga qarab, u yerlardan tutun koʻtarilayotganini koʻrdi.
Bu manzara goʻyo tandirdan chiqayotgan tutunni eslatardi.
29 Xudo vodiydagi shaharlarni qirib, Lut yashayotgan shaharlarga falokat
yogʻdirganda, Ibrohimni esdan chiqarmagan edi. Shuning uchun Xudo Lutni falokatdan
asrab qoldi.

Moʻab va Ommon xalqlarining kelib chiqishi

30 Lut Zoʻvarda turishdan qoʻrqib, ikkala qizi bilan togʻdagi bir gʻorga joylashib, oʻsha
yerda yashayverdi. 31 Bir kuni katta qizi kichigiga dedi:
— Bu atroflarda bizga uylanadigan birorta erkak qolmagan. Otamiz esa qarib
qolyapti. 32 Kel, otamizga sharob ichiramiz–da, keyin uning yoniga kiramiz. Shu yoʻl
bilan otamizdan naslimizni davom ettiramiz.
33 Shunday qilib, ular oʻsha kuni kechasi otalariga sharob ichirdilar. Katta qizi
otasining yoniga kirdi. Otasi qizining qachon kirib, qachon turganini bilmadi. 34 Keyingi
kuni katta qizi kichigiga dedi:
— Kecha tunda men otamning yoniga kirdim. Bugun ham otamizga sharob
ichiraylik, keyin sen otamizning yoniga kirasan. Shu yoʻl bilan otamizdan naslimizni
davom ettiramiz.
35 Shunday qilib, ular oʻsha kuni kechasi ham otalariga sharob ichirdilar. Kichik qiz
otasining yoniga kirdi. Otasi kichik qizining qachon kirib, qachon turganini bilmadi.
36 Shunday qilib, Lutning ikkala qizi ham otalaridan homilador boʻldilar. 37 Katta qizi
oʻgʻil tugʻdi va ismini Moʻab* qoʻydi. U bugungi kunda Moʻab xalqining ota–bobosi
hisoblanadi. 38 Kichik qiz ham oʻgʻil tugʻdi va ismini Banommi* qoʻydi. U bugungi kunda
Ommon xalqining ota–bobosi hisoblanadi.

20–BOB

Ibrohim va Abumalek

1 Ibrohim bu yerdan koʻchib, janubga — Nagav choʻli* tomonga yoʻl oldi va Kadesh
bilan Shur oraligʻida joylashdi. Keyinroq Garorga* ketdi. U yerda bir oz yashadi.
2 Ibrohim bu yerdagi odamlarga xotini Sorani, u mening singlim, deb aytar edi. Garor
shohi Abumalek odam yuborib, Sorani saroyiga oldirib keldi.
3 Abumalek kechasi tush koʻrdi. Tushida Xudo zohir boʻlib, unga dedi: “Sen mana shu

xotinni olganing uchun oʻlasan, chunki uning eri bor.” 4 Lekin Abumalek hali Soraga yaqinlashmagan edi.

— Yo Rabbiy! — dedi Abumalek. — Men begunohman–ku! Endi begunoh odamni ham oʻldiraverasanmi? 5 Ibrohim menga, u mening singlim, dedi–ku! Ayolning oʻzi ham, Ibrohim — mening akam, dedi. Men bu ishni pok koʻngil bilan qildim.

6 Xudo Abumalekka tushida yana dedi:

— Sening pok koʻngilli ekaningni bilaman. Shu sababdan Menga qarshi gunoh qilishdan seni saqladim. Soraga tegishingga yoʻl qoʻymadim. 7 Endi sen bu ayolni eriga qaytarib ber. Uning eri — paygʻambar, sen uchun ibodat qiladi. Shunda sen tirik qolasan. Agar bu ayolni eriga qaytarib bermasang, shuni bilib qoʻyki, oʻzing ham, butun oila aʼzolaring ham oʻlasizlar.

8 Ertasi kuni saharda Abumalek hamma aʼyonlarini chaqirib, ularga boʻlgan voqeani aytib berdi. Hammalari qattiq vahimaga tushdilar. 9 Keyin Abumalek Ibrohimni chaqirtirib, unga dedi:

— Bizni nima qilib qoʻyding? Senga qarshi qanday gunoh qilibman–a?! Men ham, shohligim ham shunchalik ogʻir gunohga botishiga sen sababchi boʻlding! Sen menga hech kim hech qachon qilmasligi kerak boʻlgan ishni qilding.

10 Abumalek Ibrohimdan:

— Nimani oʻylab bu ishni qilding? — deb soʻradi.

11 — Bu yerda hech kim Xudodan qoʻrqmaydi, xotinimni tortib olish uchun meni oʻldiradilar, deb oʻyladim, — dedi Ibrohim. 12 — Buning ustiga, u haqiqatan ham mening singlim, otamiz bir, lekin onamiz boshqa–boshqa boʻlgani uchun unga uylanganman. 13 Xudo meni otamning xonadonidan begona yurtlarga sayohatga olib ketganda, xotinimga shunday degan edim: “Qayerga borsak ham, men toʻgʻrimda gapirganingda, u mening akam, deb aytgin. Shunda menga sodiqligingni koʻrsatgan boʻlasan.”

14 Shundan keyin Abumalek mol–qoʻyidan, qul va choʻrilaridan Ibrohimga berdi. Xotini Sorani ham qaytarib berdi.

15 — Mana, shohligimga qarashli yerlar qarshingda turibdi, — dedi Abumalek. — Qayerda yashashni xohlasang, oʻsha joyni tanlab olaver.

16 Soraga esa shunday dedi:

— Mana, akangga ming boʻlak kumushni* tovon qilib toʻlayapman. Bu kumushlar yoningdagilarga sening pokligingni isbotlaydi*.

17-18 Xudo Sora tufayli Abumalekning xonadonidagi hamma ayolni tugʻmaydigan qilib qoʻygan edi. Ibrohim Xudoga ibodat qildi. Xudo Abumalekka shifo berdi, shuningdek, uning xotini va choʻrilariga ham shifo berib, ularni tugʻadigan qildi.

21–BOB

Isʼhoqning tugʻilishi

1 Egamiz bergan vaʼdasi boʻyicha Soraga marhamat qildi. 2 Sora homilador boʻlib, Ibrohimga qarigan chogʻida oʻgʻil tugʻib berdi. Bularning hammasi Xudo aytgan vaqtda yuz berdi. 3 Ibrohim oʻgʻliga Isʼhoq deb ism qoʻydi. 4 Xudo amr qilganday, Isʼhoq sakkiz kunlik boʻlganda, Ibrohim uni sunnat qildi*. 5 Isʼhoq tugʻilganda, Ibrohim yuz yoshda edi. 6 Sora dedi: “Xudo menga shodlik va kulgi* ato qildi, bu haqda eshitgan har kim men bilan birga kuladi. 7 Kim ham, Sora chaqaloq emizadi, deb Ibrohimga ayta olardi?! Men

esa Ibrohimga qarigan chog‘ida o‘g‘il tug‘ib berdim.”
8 Vaqt o‘tib, Is’hoq katta bo‘lib qolgach, Sora uni ko‘krakdan chiqardi. Bu baxtli kunni nishonlab, Ibrohim katta ziyofat berdi*.

Hojar bilan Ismoil quviladi

9 Misrlik Hojarning Ibrohimga tug‘ib bergan o‘g‘li Ismoil* Is’hoqni* masxara qilayotganini* Sora ko‘rib qoldi. 10 Sora Ibrohimdan:
— Bu cho‘rini o‘g‘li bilan birga haydab yuboring! — deb talab qildi. — Cho‘rining o‘g‘li mening o‘g‘lim bilan merosxo‘r bo‘lmasin*.
11 Bu gapdan Ibrohim juda xafa bo‘ldi, axir, Ismoil ham uning o‘g‘li edi–da. 12 Lekin Xudo Ibrohimga dedi:
— Bola va cho‘ri xotining uchun tashvish tortma. Soraning aytganlarini qil. Chunki Men senga va’da qilgan nasling Is’hoq orqali kelib chiqadi. 13 Cho‘ri xotiningning bolasi sening ham o‘g‘ling bo‘lgani uchun Men unga ham farzandlar ato etib, undan xalqlar yarataman.
14 Ibrohim ertasiga saharda turdi. Bir oz yegulik va bir mesh suv olib, Hojarning yelkasiga yukladi–da, o‘g‘li bilan birga jo‘natib yubordi. Hojar Bersheba atroflarida cho‘lda bemaqsad izg‘ib yurdi.
15 Meshdagi suv tamom bo‘lgach, Hojar bolasini bir butaning tagida qoldirdi.
16 So‘ngra: “Bolamning o‘lishini ko‘rmayin”, deb bolasidan bir o‘q otimi* nariga borib o‘tirdi. Hojar o‘sha yerda o‘tirib, yig‘lab, faryod qila boshladi. 17 Xudo o‘smirning yig‘isini eshitdi. Xudoning farishtasi samodan Hojarni chaqirib dedi:
— Nimaga g‘am chekyapsan, Hojar? Qo‘rqma, sen o‘smirni qoldirib ketgan joydan Xudo uning yig‘isini eshitdi. 18 Qani, o‘g‘lingni turgiz, uning qo‘lidan ushla. Men uning naslidan buyuk xalq yarataman.
19 Xudo Hojarning ko‘zini ochib yuborgan edi, u bir quduqni ko‘rdi. Borib, meshni suvga to‘ldirib keldi–da, bolasiga ichirdi.
20 Xudo doimo bola bilan birga bo‘ldi. Bola Poron cho‘lida* o‘sib–ulg‘aydi. U mohir kamonkash bo‘ldi. 21 Onasi uni Misr yurtidan bir qizga uylantirdi.

Ibrohim bilan Abumalek o‘rtasidagi ahdlashuv

22 Bir kuni Abumalek* lashkarboshisi Pixol bilan birga Ibrohimning oldiga bordi va unga dedi:
— Sen har qanday ishni qilganingda ham Xudo sen bilan birga. 23 Endi Xudoning nomini o‘rtaga qo‘yib, seni, bolalaringni, naslingni aldamayman, deb qasam ich. Men senga sodiqligimni ko‘rsatdim. Shuning uchun hozir, senga va men istiqomat qilib turgan shu yurtingga sodiq bo‘laman, deb qasam ich.
24 — Qasam ichaman, — dedi Ibrohim.
25 Shunda Ibrohim Abumalekka: “Xizmatkorlaring zo‘rlik bilan mening qudug‘imni tortib olishdi”, deb shikoyat qilib qoldi.
26 — Bu haqda birinchi marta eshityapman, — dedi Abumalek. — Sen menga bu haqda aytmagan eding. Bu ishni kim qilganini bilmayman.
27 Shunday qilib, Ibrohim Abumalekka mol–qo‘ylar berdi va ikkalasi ahd qildilar.
28 Ibrohim yettita urg‘ochi qo‘zini suruvdan ajratib oldi. 29 Abumalek Ibrohimdan:
— Sen yettita urg‘ochi qo‘zini ajratib olding, buning ma’nosi nima? — deb so‘radi.
30 Ibrohim shunday javob berdi:

— Mana shu yettita urg‘ochi qo‘zini sen qo‘limdan olishing kerak, toki bu quduqni o‘zim qaziganimni bular isbotlaydi*.

31 Shunday qilib, ikkovlari qasamyod qilishdi. Shuning uchun bu joy hozirgacha
Bersheba* deb yuritiladi. 32 Ular ahd qilganlaridan keyin, Abumalek o‘z lashkarboshisi
Pixol bilan Filistlar yeridagi Garor shahriga qaytib ketdi. 33 Ibrohim Bershebada yulg‘un
daraxti* o‘tqazdi va u yerda abadiy Xudoga — Egamizga sajda qildi. 34 U Filistlar yerida
ancha vaqt yashadi.

22–BOB

Xudo Ibrohimga amr beradi

1 Shu voqealardan keyin Xudo Ibrohimni sinadi.

— Ibrohim! — deb chaqirdi Xudo.

— Labbay! — deb javob berdi Ibrohim.

2 — Yolg‘iz suyukli o‘g‘ling Is’hoqni olib, Moriyox yeriga* bor, — dedi Xudo. — Men
senga bir tog‘ni ko‘rsataman, o‘sha tog‘da o‘g‘lingni qurbonlik qilib kuydirasan.

3 Ertasi kuni Ibrohim saharda turib, eshagini egarladi. Olovda kuydiriladigan
qurbonlik uchun o‘tin tayyorladi. So‘ng ikki xizmatkori va o‘g‘li Is’hoqni yoniga olib,
Xudo aytgan yerga jo‘nadi. 4 Uch kun yo‘l yurganlaridan keyin, Ibrohim uzoqdan o‘sha
joyni ko‘rdi. 5 Ibrohim xizmatkorlariga dedi:

— Sizlar shu yerda — eshakning yonida qolinglar. O‘g‘lim bilan hov anavi yerga
boramiz–u, u yerda sajda qilib, shu yerga qaytib kelamiz.

6 Ibrohim qurbonlik kuydirish uchun o‘tinni olib, o‘g‘li Is’hoqning yelkasiga ortdi.
O‘zi esa pichoq bilan cho‘g‘ni olib ketdi. Ikkovlari birga ketishdi.

7 — Otajon! — dedi bir payt Is’hoq otasiga.

— Labbay, o‘g‘lim, — deb javob berdi Ibrohim.

— Olov bilan o‘tin bor–u, lekin qurbonlik qilib kuydiriladigan qo‘zi qani? — deb
so‘radi Is’hoq.

8 — Qurbonlik qilib kuydiriladigan qo‘zini Xudoning O‘zi beradi*, o‘g‘lim, — deb
javob qildi Ibrohim. Shunday qilib, ikkovlari birga yo‘lda davom etishdi.

9 Ular Xudo ko‘rsatgan yerga yetib kelganlaridan keyin, Ibrohim qurbongoh qurib,
qurbongohga o‘tin qaladi. So‘ngra u o‘g‘li Is’hoqni bog‘lab, qurbongohdagi o‘tinlar ustiga
yotqizdi. 10 Ibrohim pichoqni oldi va o‘g‘lini bo‘g‘izlashga shaylandi. 11 Shu payt
Egamizning farishtasi samodan unga hayqirdi:

— Ibrohim! Ibrohim!

— Labbay! — deb javob berdi Ibrohim.

12 — Pichoqni tashla! — deb buyurdi farishta. — Bunday qilma, bolaga zarar
yetkazma. Endi bildim, sen haqiqatan Xudodan qo‘rqar ekansan. Sen hatto yagona
o‘g‘lingni ham Mendan ayamading.

13 Ibrohim boshini ko‘tarib, qo‘chqorni ko‘rib qoldi. Qo‘chqorning shohlari
chakalaklarga o‘ralib qolgan edi. Ibrohim qo‘chqorni ushlab, qurbongohda o‘g‘lining
o‘rniga kuydirib qurbonlik qildi. 14 Shuning uchun bu joyga Ibrohim “Egamiz beradi”*
deb nom qo‘ydi. Bu nom bugungi kunda*: “Egamizning tog‘ida* beriladi*” degan
hikmatga aylanib ketgan.

15 Shundan keyin Egamizning farishtasi samodan Ibrohimni yana chaqirdi:

16 — Egang aytmoqda: “Menga itoat qilganing uchun, hatto yagona o‘g‘lingni ham
Mendan ayamaganing uchun O‘zimning nomim bilan qasamyod qilaman*: 17 senga
albatta qut–baraka beraman. Naslingni osmondagi yulduzlarday, dengiz qirg‘og‘idagi
qumday son–sanoqsiz qilib ko‘paytiraman. Nasling g‘animlarining darvozalarini
egallaydilar. 18 Menga itoat qilganing uchun yer yuzidagi hamma xalqlar sening nasling
orqali baraka topadi.”
19 Shunday qilib, Ibrohim o‘g‘li bilan birga xizmatkorlari yoniga qaytib keldi va
Bershebaga — uyiga yo‘l oldi. Ibrohim Bershebada yashab qoldi.

Naxo‘rning nasli

20 Shundan keyin Ibrohim: “Ukang Naxo‘rning xotini Milxo sakkiz nafar o‘g‘il tuqqan”
degan xabarni eshitdi. 21 To‘ng‘ich o‘g‘lining ismi Uz, keyingisining oti Buz, undan
keyingisiniki Kamuvol (Kamuvol Oramning otasi bo‘ldi), 22 Xosit, Xazo, Pildash, Yidlaf,
Batuval edi. 23 Batuval bir qiz ko‘rib, otini Rivqo qo‘ydi. 24 Milxo tug‘ib bergan sakkiz
nafar o‘g‘lidan tashqari, Naxo‘rning Ravumo degan cho‘risi* ham unga to‘rt o‘g‘il tug‘ib
berdi. Bu o‘g‘illarining ismi Tavax, Gaxam, Taxash va Maxo edi.

23–BOB

Sora vafot etib, dafn qilinadi

1 Sora 127 yoshida, 2 Kan’on yurtidagi Xirat–Arbada vafot etdi. (Xirat–Arba hozir
Xevron deb yuritiladi.) Ibrohim Soraga aza tutib, yig‘ladi. 3 U Soraning jasadini qoldirib,
Xet xalqidan* bo‘lgan oqsoqollar oldiga bordi va ularga dedi:
4 — Men sizlarning orangizda yashayotgan bir musofirman. Iltimos, menga
yeringizdan ozgina joyini sotinglar, toki marhumamni dafn qilay.
5 Xet xalqidan bo‘lgan oqsoqollar Ibrohimga shunday javob berishdi:
6 — Gapimizga quloq soling, to‘ram! Biz sizni ulug‘ bek deb hisoblaymiz. Xotiningizni
dafn qilishingiz uchun joylarimizdan eng yaxshisini tanlab oling. Marhumangizni dafn
qilishingiz uchun birortamiz sizdan maqbara uchun yer ayamaymiz.
7 Ibrohim ularga egilib ta’zim qildi. 8 Keyin dedi:
— Marhumamni dafn qilishimga rozi ekansizlar, endi mening gapimga quloq
solinglar, Zo‘xar o‘g‘li Efro‘nga mening iltimosimni yetkazinglar. 9 U o‘zining
Maxpaladagi dalasining chetida joylashgan g‘orni menga sotsin. Men g‘orning to‘liq
narxini to‘layman, toki sizlarning guvohligingizda g‘or mening xonadonim uchun
maqbara bo‘lsin.
10 Efro‘n shu paytda shahar darvozasida* yig‘ilgan o‘z xalqi orasida o‘tirgan edi. U
jamiki Xet xalqiga eshittirib, Ibrohimga shunday javob berdi:
11 — To‘ram, endi mening gapimni eshitsinlar. Men dalamni, dalamdagi g‘orni ham
sizga in’om qilaman. Xalqimning guvohligida bularni sizga beraman. Marhumangizni
dafn qilavering.
12 Ibrohim yurt xalqiga yana ta’zim qildi. 13 U yurt xalqiga eshittirib, Efro‘nga
shunday javob berdi:
— Rahmat, lekin men butun dalangiz uchun kumush to‘lab, sotib olay, toki
marhumamni u yerga olib borib, dafn qilay. Iltimos, mening taklifimni rad etmang.
14-15 — E to‘ram, — dedi Efro‘n Ibrohimga, — to‘rt yuz bo‘lak kumush* turadigan bir
parcha yer bizning oramizda nima bo‘pti?! Marhumangizni dafn qilavering.

16 Ibrohim rozi bo‘lib, Efro‘n hammaga eshittirib aytgan to‘rt yuz bo‘lak kumushni
unga tortib berdi. Bu o‘lchov savdogarlar orasida muomalada edi.
17 Shunday qilib, Efro‘nning Mamre sharqida joylashgan Maxpaladagi mulki
Ibrohimga o‘tdi. Mulk dalani, daladagi g‘orni va dalaning chetidagi hamma daraxtlarni
o‘z ichiga olar edi. 18 Bular shahar darvozasida yig‘ilgan Xet xalqining guvohligida
Ibrohimning doimiy mulki bo‘lib qoldi. 19 Shundan keyin Ibrohim Kan’on yurtida Mamre
sharqidagi Maxpala dalasining chetida joylashgan g‘orga xotini Sorani dafn qildi.
(Mamre Xevronda joylashgan.) 20 Shunday qilib, Xet xalqiga qarashli bo‘lgan dala va u
yerdagi g‘or maqbara sifatida Ibrohimning doimiy mulki bo‘lib qoldi.

24–BOB

Is’hoq va Rivqo

1 Ibrohim endi ancha keksayib qoldi. Ibrohim nima qilmasin, Egamiz unga baraka
berardi. 2 Ibrohimning xonadonida qulboshisi bor edi. Ibrohim bor mulkini unga ishonib
topshirgan edi. Bir kuni Ibrohim o‘sha qulboshisiga aytdi:
— Qo‘lingni sonimning ostiga qo‘yib*, 3 Samoviy Xudo — Egamning nomi bilan:
“O‘g‘lingizga shu yerlik — Kan’onning qizlaridan kelin olib bermayman”, deb qasam ich.
4 Sen mening ona yurtimga — qarindoshlarimnikiga bor. U yerdan o‘g‘lim Is’hoqqa kelin
topib kel.
5 — Ehtimol, o‘sha qiz menga ergashib, bu yurtga kelishga rozi bo‘lmas, — dedi
qulboshi Ibrohimga. — Unday holda o‘g‘lingizni sizning ona yurtingizga olib borishim
kerakmi?
6 — Yo‘q! Zinhor bunday qila ko‘rma! — dedi Ibrohim unga. — O‘g‘limni u yerga
qaytarib olib borma! 7 Samoviy Xudo — Egam meni otam xonadonidan — qarindosh–
urug‘larim yurtidan olib chiqqanda, U menga: “Sen turgan shu yurtni sening naslingga
beraman”, deb qat’iy va’da bergan edi. Sendan oldin Egam farishtasini yuboradi. U
shunday qiladiki, sen mening o‘g‘limga kelin bo‘ladigan qizni o‘sha yurtdan topib
kelasan. 8 Lekin o‘sha qiz sen bilan birga kelishga rozi bo‘lmasa, qasamdan ozod
bo‘lasan. Zinhor o‘g‘limni u yerga olib borma.
9 Qulboshi o‘z xo‘jayini Ibrohimning soni tagiga qo‘lini qo‘yib, uning aytganlarini
qilishga ont ichdi.
10 Shundan keyin qulboshi xo‘jayinining o‘nta tuyasiga har xil qimmatbaho
sovg‘alardan ortib, Oram–Naxrayimga* yo‘l oldi. Qulboshi Ibrohimning ukasi Naxo‘r
yashaydigan shaharga bordi. 11 Oqshom payti qulboshi shahar tashqarisidagi quduq
yoniga yetib keldi va tuyalarni cho‘ktirdi. Bu paytda ayollar suv olgani shu yerga
kelishardi. 12 Qulboshi ibodat qildi:
— Ey Egam, xo‘jayinim Ibrohimning Xudosi! Bugun safarimni o‘ngla, xo‘jayinim
Ibrohimga iltifot ko‘rsatgin. 13 Men quduq boshida turibman, shahar qizlari suv olgani
kelishyapti. 14 Istagim shuki, men ularning biriga: “Iltimos, ko‘zangdan suv ichib olay”,
deb aytay. Agar o‘sha qiz: “Marhamat, bemalol ichavering, tuyalaringizni ham sug‘orib
qo‘yaman”, deb aytsa, quling Is’hoqqa kelin qilib tanlaganing o‘sha qiz bo‘lsin. Shu orqali
xo‘jayinimga iltifot ko‘rsatganingni bilayin.
15 U hali gapini aytib tugatmagan ham ediki, bir qiz kelib qoldi. U yelkasida ko‘zasini
ko‘tarib olgan edi. Bu qizning ismi Rivqo bo‘lib, u Batuvalning qizi, Batuval —

Ibrohimning ukasi Naxoʻrning oʻgʻli edi, Naxoʻrning xotini — Milxo edi. 16 Rivqo hali
biron erkakning qoʻli tegmagan bokira qiz boʻlib, juda chiroyli edi. U quduq boʻyiga
kelib, koʻzasini toʻldirdi va orqasiga qaytdi. 17 Shunda qulboshi yugurib, unga peshvoz
chiqdi.
— Iltimos, koʻzangdagi suvdan bir qultum ber, — dedi.
18 — Marhamat, janoblari, iching, — deb qiz darrov koʻzasini yelkasidan tushirdi–da,
unga ichgani suv berdi. 19 Qulboshi suv ichib boʻlgach, qiz dedi:
— Endi tuyalaringiz uchun ham suv tortib beraman, toʻyguncha ichsin.
20 U darrov koʻzasidagi suvni oxurga boʻshatdi–yu, yana suv tortgani quduqqa
yugurib ketdi. Qulboshining hamma tuyalarini sugʻordi. 21 Qulboshi: “Egam sayohatimni
oʻngidan keltirgani rostmikan yoki yoʻqmi”, deb suv tortayotgan Rivqoni jimgina kuzatib
turdi.
22 Qiz tuyalarni sugʻorib boʻlgach, qulboshi qizga burunga taqiladigan oltin sirgʻani*
va ikki bilaguzukni taqib qoʻydi. Oltin sirgʻaning ogʻirligi bir misqoldan ortiq*,
bilaguzukning ogʻirligi yigirma besh misqol* chiqardi. 23 Soʻngra u qizdan:
— Ayt–chi, kimning qizisan? — deb soʻradi. — Otangning uyida bir kecha tunashimiz
uchun bizga joy topiladimi?
24 — Men Batuvalning qiziman. Bobom — Naxoʻr, buvim Milxo edilar, — deb javob
berdi qiz. 25 Soʻngra u:
— Uyimizda tuyalaringiz uchun somon ham, yem ham koʻp, mehmonlar uchun joy
ham bor, — deb qoʻshib qoʻydi. 26 Qulboshi tiz choʻkib, Egamizga sajda qildi:
27 — Xoʻjayinim Ibrohimning Xudosi — Egamga hamdu sanolar boʻlsin. Egam
xoʻjayinimga sodiq qolib, marhamatini darigʻ tutmabdi. Egam meni toʻppa–toʻgʻri
xoʻjayinimning qarindoshlari oldiga boshlab kelibdi.
28 Qiz uyiga yugurib bordi va yuz bergan voqealardan uyidagilarni xabardor qildi. 29-
30 Rivqoning Lobon degan akasi bor edi. Lobon singlisining burnidagi sirgʻani va
qoʻllaridagi bilaguzuklarni koʻrdi, singlisidan qulboshining aytganlarini eshitib, quduq
boʻyiga shoshildi. Oʻsha odam hali ham buloq boshida, tuyalarining oldida turgan edi.
31 — Qadamingizga hasanot, ey Xudo yorlaqagan. Nega bu yerda turibsiz? Qani, uyga
yuring, uyimda siz uchun bitta xona, tuyalaringiz uchun joy tayyorlab qoʻydim.
32 Shunday qilib, qulboshi uyga kirdi. Lobon tuyalarni yuklardan boʻshatib, somon,
yem berdi. Keyin u Ibrohimning qulboshisiga va u bilan birga kelgan tuyakashlarga
oyoqlarini yuvish uchun suv olib keldi. 33 Shundan keyin kechki taom keltirildi.
Ibrohimning qulboshisi esa:
— Men nima uchun kelganimni sizlarga aytmagunimcha, ovqat yemayman, — dedi.
— Marhamat, gapiring, qanday ish bilan keldingiz? — deb soʻradi Lobon.
34 — Men Ibrohimning qulboshisiman, — deb gap boshladi u. 35 — Xoʻjayinimga
Egam baraka ato etgan: u boy boʻlib ketgan, Egam unga koʻplab mol–qoʻy, kumushu
oltinlar, qul va choʻrilar, tuyayu eshaklar bergan. 36 Xotini Sora qarigan chogʻida
xoʻjayinimga bir oʻgʻil tugʻib berdi. Xoʻjayinim butun mol–mulkini oʻgʻliga topshirgan.
37 Xoʻjayinim oʻgʻliga oʻzi yashayotgan Kanʼon yurtining qizlaridan kelin olib
bermasligim uchun menga qasam ichirdi. 38 “Mening ota urugʻim — qarindoshlarim
oldiga borib, oʻsha yerdan oʻgʻlimga kelin olib kel”, dedi. 39 Men esa: “Oʻsha qiz menga
ergashib bu yerga kelmasa–chi”, dedim. 40 Lekin xoʻjayinim aytdi: “Men Egam koʻrsatgan
yoʻldan yuraman, U Oʻzining farishtasini sen bilan birga joʻnatib, yoʻlingni oʻnglaydi. Sen

oʻgʻlimga qarindoshlarimdan — otam urugʻidan kelin olib kelasan. 41 Agar
qarindoshlarimnikiga borganingda, ular qizini bu yerga yuborishga rozi boʻlishmasa,
qasamingdan ozod boʻlasan."
42 Qulboshi gapida davom etdi:
— Bugun men quduq boʻyiga kelib, dedim: "Ey Egam, xoʻjayinim Ibrohimning
Xudosi! Oʻtinaman, safarimni oʻngla. 43 Men buloq boshida turibman. Suv olgani kelgan
qizga men, iltimos, koʻzangdan suv ichib olay, deb aytay. 44 Oʻsha qiz, marhamat, bemalol
ichavering, tuyalaringizni ham sugʻorib qoʻyaman, deb aytsa, xoʻjayinimning oʻgʻliga
Egam kelin qilib tanlagan qiz oʻsha boʻlsin." 45 Men koʻnglimdan shu gaplarni oʻtkazib
boʻlmagan ham edimki, Rivqo yelkasida koʻzasini koʻtarib kelayotgan ekan. U quduqqa
borib, koʻzasini suvga toʻldirdi. Men unga: "Iltimos, suvingdan ichib olay", dedim. 46 U
darrov yelkasidan koʻzasini tushirdi–da: "Marhamat, iching, tuyalaringizni ham sugʻorib
qoʻyaman", dedi. Men suv ichdim, Rivqo tuyalarimni ham sugʻordi. 47 Soʻng men undan:
"Kimning qizisan?" deb soʻradim. U: "Batuvalning qiziman. Bobom — Naxoʻr, buvim
Milxo edilar", deb javob berdi. Shunday qilib, uning burniga sirgʻani, qoʻllariga
bilaguzuklarni taqib qoʻydim. 48 Soʻngra Egamga tiz choʻkib, sajda qildim. Xoʻjayinim
Ibrohimning Xudosi — Egamga hamdu sanolar aytdim. Egam meni toʻppa–toʻgʻri
xoʻjayinimning qarindoshlari oldiga olib keldi. Men xoʻjayinimning oʻgʻliga qarindoshlari
oilasidan kelin topdim. 49 Endi xoʻjayinimga chinakamiga sadoqat koʻrsatadigan
boʻlsalaringiz, buni aytinglar, agar yoʻq, desangizlar, buni ham aytinglar, toki men bir
qarorga kelib, biror narsa qilayin.
50 — Egamizning Oʻzi sizni bu yerga olib keldi, — deb aytdilar Lobon bilan Batuval.
— Biz sizga nima ham der edik?! 51 Mana, Rivqo qarshingizda turibdi. Uni oling–da,
ketavering. Egamiz aytganday, u xoʻjayiningizning oʻgʻliga kelin boʻlsin.
52 Ibrohimning qulboshisi ularning gaplarini eshitgach, muk tushib, Egamizga sajda
qildi. 53 Soʻngra oltin, kumush taqinchoqlar, chiroyli liboslarni Rivqoga berdi. Rivqoning
akasi bilan onasiga ham qimmatbaho hadyalar berdi. 54 Qulboshi va u bilan birga kelgan
odamlar yeb–ichdilar, tunni shu yerda oʻtkazdilar. Ular ertasi kuni ertalab turishgach,
qulboshi: "Endi ruxsat bersangiz, xoʻjayinimning oldiga qaytaylik", dedi. 55 Lekin
Rivqoning akasi bilan onasi:
— Rivqo hech boʻlmasa oʻn kuncha biz bilan qolsin, keyin ketsa ham boʻladi, —
deyishdi.
56 Lekin qulboshi ularga shunday dedi:
— Meni ushlab turmanglar, Egamiz safarimni oʻngidan keltirdi. Men qaytay,
xoʻjayinimning oldiga boray.
57 — Hozir qizimizni chaqirib, oʻzidan soʻraylik–chi, — deyishdi ular. 58 Rivqoni
chaqirib, undan:
— Hozir mana bu odam bilan ketasanmi? — deb soʻrashdi.
— Ha, ketaman, — dedi Rivqo.
59 Shunday qilib, ular Rivqoni, uning enagasini Ibrohimning qulboshisi va odamlari
bilan birga joʻnatdilar. 60 Ular Rivqoni duo qilib, unga shunday dedilar:

> "Ey singlimiz! Minglarcha, oʻn minglarcha farzandlarning onasi boʻlgin!
> Nasling gʻanimlarining darvozalarini egallasin!"

61 Shundan so‘ng Rivqo va uning cho‘rilari tuyalarga minib, Ibrohimning qulboshisi
bilan jo‘nashga tayyor bo‘lishdi. Hammalari yo‘lga tushishdi.
62 Bu vaqtda Is’hoq Nagav cho‘lida*, Ber–Laxay–Ruy qudug‘i* yonida yashayotgan
edi. 63 Is’hoq kechqurun sayr qilish uchun* tashqariga chiqqan edi. Bir payt u tuyalar
kelayotganini ko‘rdi. 64 Rivqo ham Is’hoqni ko‘rdi va darrov tuyadan tushdi.
65 — Huv ana, bir odam dala bo‘ylab biz tomonga kelyapti, kim u? — deb so‘radi
Rivqo qulboshidan.
— Mening xo‘jayinim, — deb javob berdi qulboshi. Rivqo ro‘molini olib, yuzini
berkitdi. 66 Qulboshi hamma qilgan ishlarini Is’hoqqa aytib berdi. 67 Shunday qilib, Is’hoq
Rivqoni onasi Sora yashagan chodirga olib keldi. U Rivqoga uylandi. Is’hoq uni juda
sevardi. Shu tariqa Is’hoq onasining o‘limidan so‘ng tasalli topdi.

25–BOB

Ibrohimning boshqa o‘g‘illari

1 Ibrohim boshqa ayolga uylandi. U ayolning ismi Xaturo edi. 2 U Ibrohimga bir necha
o‘g‘il tug‘ib berdi. O‘g‘illarning ismi Zimron, Yoxshon, Midon, Midiyon, Yishboq va
Shuvax edi. 3 Yoxshonning Shava va Dedon degan o‘g‘illari bor edi. Dedonning nasli
Ashur, Latush va Lum xalqlari edi. 4 Midiyonning o‘g‘illari Efax, Ifar, Xano‘x, Avido va
Eldax edilar. Xaturodan bino bo‘lgan o‘g‘illari mana shular edilar. 5 Ibrohim butun mol–
mulkini o‘g‘li Is’hoqqa berdi. 6 Ibrohim hayot ekan, cho‘rilari* tug‘ib bergan o‘g‘illariga
hadyalar berdi va o‘sha o‘g‘illarini Is’hoqning oldidan nariga — sharq tomondagi yurtga
jo‘natdi.

Ibrohim vafot etib, dafn qilinadi

7 Ibrohim 175 yil yashab, 8 nuroniy yoshda, keksayib, olamdan o‘tdi. 9 O‘g‘illari Is’hoq
bilan Ismoil uni Mamre sharqidagi Maxpala dalasining chetida joylashgan g‘orga dafn
qildilar. Bu dala ilgari Xet xalqidan bo‘lgan Zo‘xar o‘g‘li Efro‘nniki edi. 10 Bu dalani
Ibrohim Xet xalqidan* sotib olgan edi. Ibrohim bu g‘orda xotini Soraning yoniga dafn
qilindi*. 11 Ibrohim vafot etgandan keyin, Xudo uning o‘g‘li Is’hoqqa baraka berdi. Is’hoq
Ber–Laxay–Ruy qudug‘i* yonida istiqomat qilardi.

Ismoilning nasli

12 Soraning Misrlik cho‘risi Hojar Ibrohimga tug‘ib bergan Ismoilning nasl–nasabi
tarixi quyidagichadir:

13 Tug‘ilish tartibiga ko‘ra, Ismoil o‘g‘illarining ismlari quyidagicha: to‘ng‘ich o‘g‘li —
Navayot, keyingilari Kedar, Adbal, Mivsom, 14 Mishmo, Dumax, Masso, 15 Hadad, Temo,
Yatur, Nofish va Kedemax. 16 Ismoilning bu o‘n ikki o‘g‘li o‘n ikki qabilaning yo‘lboshchisi
bo‘ldilar. O‘sha qabilalar chodir qurib joylashgan yerlarga ularning ismlari berildi.
17 Ismoil 137 yoshida olamdan o‘tdi. 18 Ismoilning nasli Ossuriyaga ketaverishda —
Misrning sharqidagi Xavila bilan Shur orasida o‘rnashdi. Ular qarindoshlariga dushman
bo‘lib yashardilar*.

Esov bilan Yoqub tug‘iladi

19 Ibrohim o‘g‘li Is’hoqning xonadoni tarixi quyidagichadir:

Ibrohim Is’hoqning otasi edi. 20 Is’hoq Rivqoga uylanganda qirq yoshda edi. Rivqo
Batuvalning qizi, Lobonning singlisi edi. Batuval Oramlik bo‘lib, Paddon–Oramdan* edi.
21 Rivqoning bolasi bo‘lmadi. Is’hoq xotini uchun Egamizga iltijo qildi. Egamiz uning
iltijolarini eshitdi. Rivqo homilador bo‘ldi. 22 Rivqoning qornidagi bolalari bir–biri bilan
urishardilar. Rivqo: “Agar shunaqa bo‘lsa, homilador bo‘lishimning nima foydasi bor?!”*
deb bu haqda Egamizdan so‘radi. 23 Egamiz Rivqoga shunday dedi:

“Sening qorningda ikki xalq bor,
Sendan tug‘ilganlar ikki xalqqa bo‘linar*.
Biri ikkinchisidan kuchli chiqajak,
Kattasi kichigiga xizmat qilajak.”

24 Rivqoning oy–kuni yaqinlashib, egizak tug‘di. 25 To‘ng‘ichi tug‘ilganda, qip–qizil*
ekan. Uning tanasi jun matoga o‘xshardi. Shuning uchun uning ismini Esov qo‘ydilar*.
26 Ukasi esa Esovning tovonini ushlab tug‘ildi, shuning uchun uning ismini Yoqub
qo‘ydilar*. Egizaklar tug‘ilganda, Is’hoq oltmish yoshda edi.

Esov to‘ng‘ichlik huquqini sotadi

27 Bolalar ulg‘aydilar. Esov — dala–dashtni yaxshi ko‘radigan mohir ovchi, Yoqub esa
uyda o‘tirishni yoqtiradigan, beozor odam bo‘ldi. 28 Esov ovlab kelgan hayvonlarning
go‘shtini Is’hoq tanovul qilib, lazzat olar, shuning uchun u Esovni yaxshi ko‘rardi. Rivqo
esa Yoqubni yaxshi ko‘rardi.
29 Bir kuni Yoqub yasmiq* shavla pishirayotgan edi, Esov daladan ochqab, sulayib
kelib qoldi. 30 Esov Yoqubga:
— Menga ana shu qizil ovqatingdan bergin, o‘lguday qornim ochdi, — dedi. (Shuning
uchun u Edom* degan ism ham olgan.)
31 — Bo‘pti, — dedi Yoqub, — lekin buning evaziga menga to‘ng‘ichlik huquqingni*
sot.
32 — E, to‘ng‘ichlik huquqimdan menga nima foyda, qornim ochganidan o‘lay deb
turibman, — dedi Esov.
33 — Oldin menga qasam ich, — dedi Yoqub. Esov Yoqubga qasam ichdi. Shunday
qilib, u to‘ng‘ichlik huquqini Yoqubga sotdi. 34 Shundan keyin Yoqub Esovga non bilan
yasmiq shavla berdi. Esov yeb–ichib, o‘rnidan turdi–da, o‘z ishlari bilan chiqib ketdi.
Shunday qilib, Esov o‘zining to‘ng‘ichlik huquqini mensimadi.

26–BOB

Is’hoq va Filistlar shohi Abumalek

1 Shu orada yurtda qattiq ocharchilik bo‘ldi, bunday ocharchilik ilgari Ibrohim
davrida ham yuz bergan edi*. Is’hoq Garor shahriga ko‘chib ketdi. U yerda Filistlar shohi
Abumalek* yashardi. 2 Egamiz Is’hoqqa zohir bo‘lib, dedi:
— Misrga borma. Men senga ko‘rsatadigan yurtda o‘rnashib, 3 o‘sha yerda yashab
tur. Agar shunday qilsang, Men sen bilan birga bo‘laman, senga baraka beraman. Mana
shu yerlarning hammasini senga va sening naslingga beraman. Otang Ibrohimga bergan
va’damda turaman. 4 Men sening naslingni osmondagi yulduzlar kabi son–sanoqsiz
qilaman. Mana shu yerlarning hammasini sening naslingga beraman. Sening nasling

orqali yer yuzidagi hamma xalqlar baraka topadilar. 5 Ibrohim Mening talablarimga,
amrlarimga, farmonlarimga, qonunlarimga itoat etgani uchun senga baraka beraman.
6 Shunday qilib, Is'hoq Garor shahrida o'rnashib qoldi. 7 Bu yerdagi odamlar
Is'hoqdan Rivqo to'g'risida so'raganlarida, "U mening singlim", deb javob berardi. "U
mening xotinim", deb aytishdan qo'rqar edi. Rivqo juda chiroyli bo'lgani sababli:
"Odamlar uni tortib olish uchun meni o'ldiradilar", deb o'ylardi.
8 Oradan ancha vaqt o'tdi. Bir kuni Is'hoq Rivqoni erkalatayotganda, Filistlar shohi
Abumalek derazadan ko'rib qoldi. 9 Abumalek Is'hoqni chaqirtirdi.
— U sening xotining ekan–ku! Nimaga uni, singlim, deb aytding? — deb so'radi.
— Agar xotinim deb aytsam, birortasi uni tortib olish uchun meni o'ldiradi, deb
qo'rqdim, — dedi Is'hoq.
10 — Bu nima qilganing–a?! Axir, odamlarimdan biri xotining bilan osonlikcha birga
bo'lishi mumkin edi–ku! Unday holda bizni gunohkor qilib qo'ygan bo'larding!

Filistlar Is'hoq bilan quduq uchun tortishadi

11 Shunday qilib, Abumalek: "Kimki bu odamga yoki uning xotiniga ozor yetkazsa,
o'sha odamning jazosi o'limdir", deb farmon berib, hammani ogohlantirdi.
12 Is'hoq u yerda dalasiga urug' sepdi. Egamiz unga marhamat ko'rsatgani uchun
ekkan urug'iga nisbatan yuz barobar ko'p hosil oldi. 13 Is'hoq boyib ketdi, boyligi tobora
ko'payib boraverdi. 14 Uning qo'y–echki suruvlari, mol podalari, xizmatkorlari ko'p edi.
Shu sababdan Filistlar Is'hoqqa hasad qilishardi. 15 Ular Is'hoqning hamma quduqlarini
tuproqqa to'ldirib tashlashdi. Ibrohim hayotligida bu quduqlarni o'zining
xizmatkorlariga qazdirgan edi. 16 Abumalek Is'hoqqa: "Bizning yerimizdan ket, sen
bizdan ko'ra, juda kuchayib ketding", dedi.
17 Is'hoq bu yerdan ketib, Garor soyligida* chodir tikib, o'sha yerda o'rnashib oldi.
18 Ibrohim bu yerda quduqlar qazdirgan, lekin uning vafotidan keyin Filistlar bu
quduqlarni ko'mib yuborgan edilar. Is'hoq o'sha quduqlarni qaytadan qazdirdi. Is'hoq
quduqlarga otasi qo'ygan nomlarni berdi. 19 Uning xizmatkorlari suv topish uchun Garor
soyligida yerni qaziyotganlarida, buloq otilib chiqdi. 20 Lekin Garorlik cho'ponlar
kelishib: "Bu buloq bizniki", deb buloqni talab qildilar. Shunday qilib, ular Is'hoqning
cho'ponlari bilan quduq ustida janjallashib qoldilar. Shuning uchun Is'hoq quduqqa
Janjal* deb nom berdi. 21 So'ngra Is'hoqning odamlari boshqa quduq qazidilar. Lekin bu
quduq ustida ham kelishmovchilik yuz berdi. Shuning uchun Is'hoq bu quduqqa
Ziddiyat* deb nom berdi. 22 Is'hoq bu yerdan ham ko'chib, boshqa quduq qazdirdi. Yerli
aholi oxiri ularni o'z holiga qo'ydi. Is'hoq: "Nihoyat, Egam bu yurtda yashashimiz uchun
bizga keng joy berdi, endi biz bu yerda yayrab–yashnab ketamiz", deya quduqqa
Kenglik* deb nom berdi.
23 Is'hoq bu yerdan ham Bershebaga ko'chib ketdi. 24 O'sha kuni kechasi Egamiz
Is'hoqqa zohir bo'lib, dedi:
— Men otang Ibrohimning Xudosiman. Qo'rqma, Men sen bilan birgaman. O'z qulim
Ibrohimning haqi–hurmati uchun senga baraka beraman, senga son–sanoqsiz nasl ato
qilaman.
25 Is'hoq u yerda qurbongoh qurib, Egamizga sajda qildi, o'sha yerda chodirini tikdi.
Is'hoqning xizmatkorlari u yerda quduq qazidilar.

Is’hoq bilan Abumalek o‘rtasidagi ahdlashuv

26 Abumalek maslahatchisi Oxizat va lashkarboshisi Pixol bilan birga Garordan
Is’hoqning oldiga bordi. 27 Is’hoq ularga dedi:
— Nimaga mening oldimga keldingiz? Menga adovat bilan qarab, yeringizdan
chiqarib yuborgan edingiz–ku!
28 — Bizga endi ayon bo‘ldi: Egang sen bilan birga ekan. Shuning uchun sen bilan biz
ont ichib, ahd qilaylik, dedik. 29 Biz senga hech qanday yomonlik qilmagan edik,
aksincha, olijanoblik qilib, eson–omon jo‘natib yuborgan edik. Sen ham: “Sizlarga
yomonlik qilmayman”, deb qasam ich. Sen Xudoning yorlaqagani ekansan.
30 Is’hoq ularga ziyofat tayyorladi. Ular yeb–ichdilar. 31 Ertasi kuni ular erta tongda
turib, bir–birlariga qasamyod qildilar. So‘ngra Is’hoq ularni uylariga eson–omon jo‘natib
yubordi. 32 O‘sha kuni Is’hoqning xizmatkorlari kelib: “Biz suv topdik”, deb unga o‘zlari
qazigan quduq to‘g‘risida aytdilar. 33 Is’hoq bu quduqqa Qasamyod* deb nom qo‘ydi.
Shuning uchun shaharning nomi bugungacha Bershebadir*.

Esovning ajnabiy xotinlari

34 Esov qirq yoshida Xet xalqidan ikkita qizga — Beri degan kishining Yahudit ismli
qiziga va Elo‘n degan kishining Bosimat ismli qiziga uylandi. 35 Esovning bu xotinlari
Is’hoq bilan Rivqoning boshiga ko‘p qora kunlarni soldilar.

27–BOB

Is’hoq Yoqubni duo qiladi

1 Is’hoq qaridi, ko‘zlari xiralashib ko‘rmay qoldi. Bir kuni u o‘g‘li Esovni chaqirdi:
— O‘g‘lim!
— Labbay, otajon! — deb javob berdi Esov.
2 — Ko‘rib turibsan, men qarib qoldim. To‘satdan o‘lib qolishim mumkin. 3 Endi
yoyingni, o‘qlaringni olib, dalaga chiq, menga bironta hayvonni ovlab kel. 4 Keyin men
yaxshi ko‘radigan bironta mazali taom tayyorlab keltir. Men taomni yeb, o‘limimdan
oldin seni duo qilayin.
5 Is’hoq o‘g‘li Esovga gapirayotganda, Rivqo eshitib turgan edi. Esov dalaga ovga
ketganda, 6 Rivqo o‘g‘li Yoqubga dedi:
— Akang Esovga otangning aytgan gaplarini eshitib qoldim. 7 Otang unga: “Menga
bironta hayvon ovlab kel, men yaxshi ko‘radigan bironta mazali taom tayyorlagin,
taomni yeb, o‘limimdan oldin Egam oldida seni duo qilayin”, dedi. 8 Endi mening
gaplarimni yaxshilab eshit, aytganimni qil, o‘g‘lim. 9 Suruvga borib, menga ikkita
uloqchani tanlab olib kel. Uloqchalardan otang yaxshi ko‘radigan mazali taom tayyorlab
beray. 10 Sen taomni otangning oldiga olib kirib, unga yegizgin, toki otang o‘limidan
oldin seni duo qilsin.
11 — Onajon, o‘zingiz bilasiz–ku, akam Esov serjun, mening terim esa silliq, — dedi
Yoqub Rivqoga. 12 — Mabodo, otam meni paypaslab ushlab ko‘rsa, nima bo‘ladi?
Aldayotganimni otam bilib qoladi. Otam meni duo qilish o‘rniga la’natlaydi.
13 — O‘sha la’nat menga kelsin, bolaginam, — dedi Rivqo. — Endi aytganimni qil, bor,
uloqchalarni olib kel.
14 Yoqub onasining buyrug‘iga itoat etib, ikkita uloqchani olib keldi. Rivqo
uloqchalardan Is’hoq yaxshi ko‘rgan mazali taom tayyorladi. 15 So‘ng u Esovning uydagi

yaxshi kiyimlarini oldi–da, Yoqubga kiygizdi. 16 Uloqchalarning terisini Yoqubning
qo‘llariga va bo‘ynining tuksiz joylariga o‘radi. 17 O‘zi tayyorlagan mazali taom bilan
nonni o‘g‘li Yoqubning qo‘liga berdi.
18 Shunday qilib, Yoqub taom to‘la laganni otasining oldiga olib kirdi.
— Assalomu alaykum, otajon!
— Va alaykum assalom! Qaysi biringsan, o‘g‘lim, Esovmisan, Yoqubmisan?
19 — To‘ng‘ichingiz Esovman, — dedi Yoqub otasiga. — Aytganingizni qildim, mana,
ovimdan siz yaxshi ko‘rgan taom tayyorladim. Turing, yeb, meni duo qiling.
20 Is’hoq o‘g‘liga:
— Darrov topib keldingmi, o‘g‘lim? — dedi.
— Egangiz Xudo yo‘limni o‘ngladi, — deb javob berdi Yoqub.
21 Shundan keyin Is’hoq Yoqubga dedi:
— Yaqinroq kel–chi, o‘g‘lim, ushlab ko‘ray–chi, haqiqatan ham o‘g‘lim Esovmisan
yoki yo‘qmi, bilayin.
22 Yoqub otasiga yaqinroq bordi. Is’hoq uni paypaslab:
— Ovoz — Yoqubning ovozi, qo‘llar esa Esovning qo‘llari, — dedi.
23 Yoqubning qo‘llari Esovning qo‘llariga o‘xshab serjun tuyulgani uchun Is’hoq uni
tanimadi. Shuning uchun Is’hoq Yoqubni duo qilishga chog‘landi–yu, lekin yana so‘radi:
24 — Sen haqiqatan o‘g‘lim Esovmisan?
— Ha, Esovman, — deb javob berdi u. 25 Shundan keyin Is’hoq:
— Endi taomni keltir, — dedi. — Taomingdan yeb, seni duo qilayin.
Yoqub taomni otasiga keltirib berdi. Is’hoq taomni yeb bo‘lgach, Yoqub unga sharob
keltirdi. Is’hoq sharobni ham ichdi. 26 So‘ngra Is’hoq unga:
— Yaqinroq kelib, meni o‘p, o‘g‘lim, — dedi. 27 Yoqub yaqinlashib, otasini o‘pdi.
Is’hoq uning kiyimlarini hidlab, shunday duo qildi:

“O, o‘g‘limning yoqimli hidi
Egam marhamat qilgan
Dalaning hidiga o‘xshar.
28 Xudoyim yog‘dirsin senga
Osmon shabnamini,
Bersin yerning unumdor tuprog‘ini,
Mo‘l–ko‘l don va sharobni.
29 Xizmat qilsin senga xalqlar,
Ta’zim qilsin senga el–uluslar.
Hukmron bo‘lgin qarindoshlaring ustidan,
Ta’zim qilsin onangning nasli senga.
Seni la’natlagan la’nati bo‘lsin,
Seni duo qilgan baraka topsin.”

Esov Is’hoqdan duo so‘rab iltijo qiladi

30 Is’hoq Yoqubni duo qilib bo‘lishi bilanoq, Yoqub otasi huzuridan endi chiqqan ham
ediki, akasi Esov ovdan qaytib kelib qoldi. 31 U ham mazali taom tayyorlab, otasi oldiga
olib kirdi.
— Otajon, turing, sizga olib kelgan ovimning go‘shtidan yeb, meni duo qiling.
32 — Sen kimsan? — so‘radi Is’hoq undan.

— To‘ng‘ich o‘g‘lingiz Esovman, — deb javob berdi u.
33 Is’hoq hayajondan titrab ketib dedi:
— Ovidan taom tayyorlab, menga olib kelgan kim edi? Sen kelmasingdan oldin, men go‘shtni endigina yeb bo‘lgan edim! Men uni duo qildim, endi duo olgan udir!
34 Esov otasining so‘zlarini eshitgach, haddan tashqari qattiq, achchiq nola qildi.
— Meni ham duo qiling, otajon! — deb yolvordi u otasiga. 35 Lekin Is’hoq:
— Ukang oldimga kiribdi, u meni aldabdi, — dedi. — Senga atalgan duoni ukang oldi.
36 — Unga Yoqub deb ism qo‘yilgani bekorga emas ekan–da, — dedi Esov. — U meni ikki marta aldadi–ya!* Birinchi marta to‘ng‘ichlik huquqimni olgan edi*, endi esa menga atalgan duoni o‘g‘irlabdi. Menga bironta ham duo saqlab qo‘ymadingizmi? — deb yana so‘radi u.
37 — Men Yoqubni sening ustingdan hukmron qildim, — dedi Is’hoq Esovga. — Uning hamma qarindosh–urug‘larini ham o‘ziga xizmatkor qilib berdim. Don bilan sharobni ham unga berib bo‘ldim. Senga beradigan hech narsa qolmadi–ku, o‘g‘lim!
38 — Nahotki menga bironta ham duo qoldirmagan bo‘lsangiz?! — deb o‘tindi Esov. — Meni ham duo qiling, otajon! — deb dod solib yig‘lay boshladi.
39 Is’hoq o‘g‘liga shunday javob berdi:

“Sening manziling yerning unumdor tuprog‘idan nari bo‘lsin,
Osmonning shabnamidan mahrum bo‘lsin.
40 Sen qilichning damida yashagaysan,
Ukangga xizmat qilib o‘tgaysan.
Isyon ko‘targaningda esa
U solgan bo‘yinturuqni uloqtirib tashlagaysan.”

41 Yoqub Esovning duosini o‘g‘irlagani uchun, Esov uni juda yomon ko‘rib qoldi. Esov o‘ziga o‘zi: “Otamning kuni bitib qoldi, azasi o‘tgandan keyin Yoqubni o‘ldiraman”, dedi.
42 Lekin kimdir Esovning niyatini Rivqoga yetkazdi. Rivqo Yoqubni chaqirib, unga:
— Esov seni o‘ldirmoqchi bo‘lib, o‘ziga taskin berib yuribdi ekan, — dedi. 43 — Endi gapimga quloq sol. Hoziroq Xoronga* — Lobon akamning oldiga jo‘na. 44 Akang g‘azabidan tushguncha, Lobon akamning yonida yur. 45 Esov sening qilmishlaringni unutib, g‘azabidan tushgandan keyin, orqangdan birortasini jo‘nataman, seni qaytarib olib keladi. Bo‘lmasa, bir kunda akangdan ham, sendan ham ayrilib qolaman*.

Is’hoq Yoqubni Lobonning huzuriga jo‘natadi

46 Shundan keyin Rivqo Is’hoqqa dedi:
— Esovning anavi Xet* xotinlari dastidan jonimdan to‘ydim. Agar Yoqub ham o‘shalarga o‘xshagan birorta Xet qiziga uylansa, unda hayotim nima kechadi?

28–BOB

1 Shunday qilib, Is’hoq Yoqubni chaqirtirib, uni duo qildi va shunday maslahat berdi:
— Kan’onlik qizlarga uylanma. 2 Hoziroq Paddon–Oramga* — bobong Batuvalning xonadoniga jo‘na. U yerda tog‘ang Lobonning qizlaridan birortasiga uylan. 3 Qodir Xudo baraka berib, seni ko‘paytirsin. Sening naslingdan ko‘p xalqlar kelib chiqsin. 4 Xudo Ibrohimga va’da qilgan barakasini senga va sening naslingga ato qilsin. Biz hozir

musofir bo‘lib yashayotgan, Xudo Ibrohimga bergan shu yurt sening mulking bo‘lsin.
5 Shunday qilib, Is’hoq Yoqubni jo‘natdi. Yoqub Paddon–Oramga — Oramlik* Batuvalning o‘g‘li, tog‘asi Lobonnikiga ketdi.

Esov boshqa xotinga uylanadi

6-7 Esov eshitdiki, otasi Yoqubni duo qilib, uni Paddon–Oramga jo‘natibdi. Yoqub ota–onasining gaplariga itoat etib, Paddon–Oramga ketibdi. Otasi Yoqubga: “O‘sha yerdan uylangin”, debdi, “Kan’onlik qizlarga uylanma”, deb ogohlantiribdi. 8 Kan’onlik xotinlari otasiga yoqmasligini Esov tushunib yetdi. 9 Esov amakisi Ismoilning xonadoniga bordi va xotinlari ustiga, Ibrohim o‘g‘li Ismoilning qizlaridan biriga uylandi. Yangi xotinining ismi Maxalat edi. Maxalatning Navayot* degan akasi ham bor edi.

Yoqub Baytilda tush ko‘radi

10 Yoqub Bersheba shahridan chiqib, Xoron* tomonga qarab ketdi. 11 U bir joyga yetib kelganda, kun botgan edi. Shuning uchun o‘sha yerda tunashga to‘xtadi. U bir tosh topdi–da, toshni boshining ostiga qo‘yib uxlagani yotdi. 12 Bir payt u tushida bir zinapoyani* ko‘rdi. Zinapoyaning pasti yerga, tepasi esa osmonga tegib turganmish. Xudoning farishtalari zinapoyadan chiqib, tushayotgan emishlar. 13 Zinapoyaning yonida* Egamiz turgan emish. Egamiz Yoqubga shunday debdi:
— Men bobong Ibrohimning, otang Is’hoqning Xudosi — Egangman. Hozir sen yotgan yer o‘zingniki bo‘ladi. Bu yerni senga va sening naslingga beraman. 14 Sening nasling yerning qumi singari son–sanoqsiz bo‘ladi. Ular g‘arbu sharqqa, shimolu janubga qarab yer yuziga yoyilib ketadilar. Yer yuzidagi hamma xalqlar sen va sening nasling orqali baraka topadi. 15 Shuni bilginki, Men sen bilan birgaman, qayerga bormagin, Men seni saqlayman. Shu yurtga seni yana qaytarib olib kelaman. Men seni hech qachon tark etmayman, bergan va’dalarimni oxirigacha bajaraman.
16 Yoqub uyg‘onib ketdi va: “Haqiqatan ham Egamiz shu yerda ekan, men esa buni bilmabman”, dedi. 17 U qo‘rqib ketdi: “Bu joy Xudoning uyi ekan, samoga ochiladigan darvozaning o‘zi! Naqadar qo‘rqinchli–ya bu joy!” dedi.
18 Yoqub saharda turdi. Boshining ostiga qo‘ygan toshni olib, yodgorlik qilib o‘rnatdi. Keyin yodgorlik toshining ustidan Xudoga atab zaytun moyi quydi. 19 Ilgari bu joyning nomi Luz edi. Yoqub esa bu joyga Baytil* deb nom berdi. 20 So‘ng Yoqub quyidagicha qasam ichdi: “Agar Xudo men bilan birga bo‘lsa, boradigan shu yo‘limda meni asrasa, menga rizq–ro‘zimni va kiyim bersa, 21 otamning xonadoniga eson–omon qaytarib olib kelsa, Egam mening Xudoyim bo‘ladi. 22 Men yodgorlik qilib o‘rnatgan shu tosh Xudoga sajda qiladigan joy bo‘ladi. Xudo menga bergan hamma narsaning o‘ndan birini ushr qilib albatta beraman.”

29–BOB

Yoqub Lobonning uyiga keladi

1 Yoqub yo‘lida davom etib, nihoyat, sharqdagi yurtga yetib keldi. 2 U dashtda bir quduqni uzoqdan turib ko‘rdi. Quduq yonida uch to‘p poda yotardi. Chorva shu quduqdan sug‘orilar, quduqning og‘zi kattakon tosh bilan yopib qo‘yilardi. 3 Cho‘ponlar hamma qo‘y–echkilarni u yerga haydab kelganlaridan keyin, quduqning og‘zidagi toshni surishib, qo‘ylarni sug‘orishardi–da, quduqning og‘zini yana o‘sha tosh bilan berkitib

qo‘yishardi.

4 Yoqub cho‘ponlarning oldiga borib, ulardan:

— Birodarlar, qayerliksizlar? — deb so‘radi.

— Xorondanmiz*, — deb javob berishdi ular.

5 — Lobon degan odamni taniysizlarmi? — deb so‘radi Yoqub, — u Naxo‘rning nabirasi bo‘ladi.

— Ha, taniymiz, — deb javob berishdi cho‘ponlar.

6 — Lobon tinch–omonmi? — deb so‘radi Yoqub.

— Yaxshi, — deb javob berishdi cho‘ponlar. — Ana, uning qizi Rohila ham qo‘ylarini haydab shu yoqqa kelyapti.

7 — Suruvni bir joyga to‘plabsizlar, lekin hozir payti emas–ku, oqshomgacha hali erta! — dedi Yoqub. — Qo‘ylarni sug‘orib, o‘tlatgani qaytarib olib bormaysizlarmi?

8 Cho‘ponlar shunday javob berishdi:

— Hamma suruvni bu yerga to‘plab, toshni quduqning og‘zidan surganimizdan keyingina qo‘ylarni sug‘oramiz.

9 Yoqub cho‘ponlar bilan gaplashib turganda, Rohila otasining qo‘ylarini haydab kelib qoldi. Rohila cho‘ponlik qilardi. 10 Yoqub tog‘asi Lobonning qizi Rohilani va uning qo‘ylarini ko‘rdi. Quduq yoniga borib, quduq og‘zidagi toshni surdi–da, tog‘asining qo‘ylarini sug‘ordi. 11 Keyin Rohilani o‘pdi, xursandligidan ko‘zlariga yosh keldi.

12 — Men otangning jiyaniman, ammang Rivqoning o‘g‘liman, — deb Yoqub o‘zini tanishtirdi.

Rohila yugurib borib, otasiga xabar berdi.

13 Lobon, singlimning o‘g‘li kelibdi, deb eshitdi–yu, o‘sha zahoti, Yoqubni kutib olishga shoshildi. Yoqub bilan quchoqlashib ko‘rishdi. Lobon Yoqubni uyiga olib keldi. Yoqub boshidan kechirganlarini tog‘asiga aytib berdi.

14 — Sen mening jigarimsan, oilamning bir a’zosisan, — dedi Lobon.

Yoqub Lobonga Rohila va Leax uchun xizmat qiladi

Yoqub Lobonnikida bir oy turgandan keyin, 15 Lobon unga dedi:

— Sen mening qarindoshim bo‘lsang ham, tekinga ishlamasliging kerak. Ayt–chi, xizmat haqingga nima istaysan?

16 Lobonning ikki qizi bo‘lib, kattasining ismi — Leax, kichiginiki — Rohila edi. 17 Leaxning ko‘zlari chiroyli*, Rohila esa har jihatdan go‘zal — yuzi chiroyli, qaddi–qomati kelishgan edi. 18 Yoqub Rohilani sevardi, shuning uchun: “Men sizga kichik qizingiz Rohila uchun yetti yil xizmat qilib beraman”, dedi.

19 Shunda Lobon unga dedi:

— Mayli, roziman, qizimni begonaga berganimdan ko‘ra, senga berganim yaxshi–ku. Menikida qolaver.

20 Shunday qilib, Yoqub Rohilaga qalin uchun yetti yil xizmat qildi. Lekin Yoqubning Rohilaga bo‘lgan sevgisi shunchalik kuchli ediki, yetti yil bir necha kunday tuyuldi.

21 Nihoyat, Yoqub Rohilaga uylanadigan payt ham keldi.

— Men shartni bajardim, — dedi Yoqub Lobonga. — Endi qizingizga uylanishimga ijozat bering.

22 Lobon butun yurt aholisini to‘plab, ziyofat berdi. 23-24 Lekin o‘sha kuni kechasi Lobon Rohilaning o‘rniga, to‘ng‘ich qizi Leaxni Yoqubga berdi. Leaxga xizmat qilsin deb,

Lobon oʻzining Zilpo degan choʻrisini Leaxga berdi. Yoqub Leaxning yoniga kirdi.
25 Yoqub ertalab turib qarasa, yonida Leax yotibdi!
— Bu nima qilganingiz?! — dedi Yoqub gʻazablanib Lobonga. — Men sizga yetti yil Rohila uchun xizmat qildim–ku! Nimaga meni aldadingiz?
26 — Bizning yurtdagi odat boʻyicha, katta qizdan oldin kichigi turmushga berilmaydi, — deb javob berdi Lobon. 27 — Bir haftada bu qizimning toʻyi tantanasi tugaydi, kutib tur. Agar menga yana yetti yil xizmat qilib beradigan boʻlsang, xizmating evaziga kichkinasini ham senga beraman.
28 Yoqub rozi boʻldi. Bir haftadan keyin Yoqub bilan Leaxning toʻyi tantanasi tugadi. Lobon Rohilani ham Yoqubga berdi. 29 Lobon oʻzining Bilxax degan choʻrisini qizi Rohilaga bergan edi. 30 Shunday qilib, Yoqub Rohilaning yoniga kirdi. U Leaxdan koʻra, Rohilani koʻproq yaxshi koʻrardi. Yoqub Lobonga yana yetti yil xizmat qilib berdi.

Yoqubning farzandlari

31 Yoqub Leaxga koʻngilsiz ekanini Egamiz koʻrib turardi. Shuning uchun U Leaxni tugʻishga qodir qildi, Rohila esa befarzand oʻtaverdi. 32 Leax homilador boʻlib, oʻgʻil tugʻdi. U: “Egam mening baxtsizligimni koʻrdi, endi erim menga albatta koʻngil qoʻyadi”, deb oʻgʻlining ismini Ruben* qoʻydi. 33 Leax homilador boʻlib, yana oʻgʻil tugʻdi. “Erim menga koʻngilsizligini Egam eshitib, yana bir oʻgʻil berdi”, deb oʻgʻlining ismini Shimoʻn* qoʻydi. 34 Leax yana homilador boʻldi va yana oʻgʻil tugʻdi. U: “Erimga uchta oʻgʻil tugʻib berdim, endi u albatta menga bogʻlanib qoladi”, deb oʻgʻlining ismini Levi* qoʻydi. 35 Leax yana homilador boʻlib, yana oʻgʻil tugʻdi. U: “Endi Egamga hamdu sano aytaman”, deb oʻgʻlining ismini Yahudo* qoʻydi. Shundan keyin u tugʻishdan qoldi.

30–BOB

1 Rohila Yoqubga bola tugʻib bera olmagach, endi opasiga hasad qila boshladi.
— Menga farzand bering, boʻlmasa oʻlaman! — dedi u Yoqubga.
2 Yoqub Rohiladan qattiq gʻazablandi.
— Nima, men Xudomanmi?! Seni bepusht qilib yaratgan Xudo–ku!
3 Shunda Rohila Yoqubga dedi:
— Ana, choʻrim Bilxaxning yoniga kiring. U menga bola tugʻib bersin, toki choʻrim orqali men ham bolali boʻlayin*.
4 Shunday qilib, Rohila eriga Bilxaxni olib berdi. Yoqub Bilxaxning yoniga kirdi.
5 Bilxax homilador boʻlib, Yoqubga oʻgʻil tugʻib berdi. 6 Rohila: “Xudoyim meni oqladi, U mening iltijoimni eshitib, menga oʻgʻil ato etdi”, deb oʻgʻlining ismini Dan* qoʻydi. 7 Bilxax yana homilador boʻlib, Yoqubga ikkinchi oʻgʻlini tugʻib berdi. 8 Rohila: “Opam bilan qattiq olishib, men yutib chiqdim”, deb oʻgʻlining ismini Naftali* qoʻydi.
9 Leax bola tugʻishdan qolganini anglab yetdi. Shunda u ham oʻzining choʻrisi Zilponi Yoqubga olib berdi. 10 Zilpo Yoqubga oʻgʻil tugʻib berdi. 11 Leax: “Menga omad kulib boqdi”, deb oʻgʻlining ismini Gad* qoʻydi. 12 Soʻngra Zilpo Yoqubga ikkinchi oʻgʻlini tugʻib berdi. 13 Leax: “Naqadar baxtliman–a! Endi ayollar meni juda baxtli ekan, deb aytishadi”, deya oʻgʻlining ismini Osher* qoʻydi.
14 Bugʻdoy oʻrimi payti edi. Bir kuni Ruben dalaga borganda, mehrigiyo oʻsimligini* topib olib, onasi Leaxga keltirdi. Rohila: “Oʻgʻlingning mehrigiyolaridan menga ham ber”, deb iltimos qildi. 15 Lekin Leax gʻazab bilan javob qildi:

— Erimni tortib olganing kamlik qildimi?! Endi o‘g‘limning mehrigiyolarini ham tortib olmoqchimisan?!

— O‘g‘lingning mehrigiyolari evaziga bu kecha erim sening yoningga kiradi, unga ijozat beraman, — dedi Rohila.

16 Kechqurun Yoqub daladan kelganda, Leax unga peshvoz chiqdi.

— Bu kecha mening yonimga kirishingiz kerak, — dedi u eriga. — O‘g‘lim daladan topib kelgan mehrigiyoga sizni almashtirdim.

Shunday qilib, Yoqub Leaxning yoniga kirdi. 17 Xudo Leaxning iltijolariga javob berdi. U yana homilador bo‘lib, Yoqubga beshinchi o‘g‘lini tug‘ib berdi. 18 Leax: “Cho‘rimni erimga olib berganim uchun Xudoyim meni mukofotladi”, deb o‘g‘lining ismini Issaxor* qo‘ydi. 19 So‘ngra u yana homilador bo‘lib, Yoqubga oltinchi o‘g‘lini tug‘ib berdi. 20 Leax dedi: “Xudoyim menga yaxshi hadya berdi. Endi erim meni hurmat qiladigan bo‘ladi, chunki unga oltita o‘g‘il tug‘ib berdim.” Shunday deb, o‘g‘lining ismini Zabulun* qo‘ydi. 21 Keyin Leax qiz tug‘ib, ismini Dina qo‘ydi.

22 Nihoyat, Xudo Rohilaga ham marhamat qildi va uning iltijolariga javob berib, bola tug‘ishga qodir qildi. 23 Rohila homilador bo‘lib, o‘g‘il tug‘di. “Xudo menga o‘g‘il ato etib, sharmandaligimni olib tashladi”, dedi. 24 “Egam menga yana o‘g‘il bersin”, deb o‘g‘lining ismini Yusuf* qo‘ydi.

Yoqub Lobon bilan savdolashadi

25 Rohila Yusufni tuqqandan keyin ko‘p o‘tmay, Yoqub Lobonga dedi:

— Ijozat bersangiz, men yurtimga qaytmoqchiman. 26 Xotinlarim bilan bolalarimni ham olib ketsam, degandim. O‘zingiz bilasiz, sizga ko‘p xizmatim singgan, peshana terimni to‘kib ularni topganman. Endi ketishga ijozat bersangiz.

27 Lobon esa unga shunday javob berdi:

— Endi iltimos qilaman, mening gapimga quloq sol: fol ochtirib ko‘rgan edim, Egam menga sen tufayli baraka berganini bildim*. 28 Xizmat haqingni ayt, to‘lay.

29 — O‘zingiz bilasiz: uzoq yillar davomida sizga ko‘p xizmat qildim. Mol–qo‘ylaringiz mening mehnatim tufayli qanchalik ko‘payganini bilasiz. 30 Aslida men kelmasimdan oldin molingiz oz edi, endi esa boyligingiz haddan ziyod ko‘paydi. Men tufayli Egam sizga hamma narsada baraka berdi*. Endi oilamni o‘ylaydigan payt keldi.

31 — Xizmat haqingga nima istaysan? — deb yana so‘radi Lobon.

— Menga hech qanday xizmat haqi kerak emas, — deb javob qildi Yoqub. — Agar rozi bo‘lsangiz, bir taklifim bor. Men qo‘y–echkilaringizni boqaveray. 32 Bugun suruvingizni oralab, olachipor va xol–xol qo‘ylaringizni, qora qo‘zilaringizni, echkilaringizdan ham xol–xolini va olachiporini* ajratib olay. Xizmat haqimga shularni bersangiz kifoya. 33 Agar men halol bo‘lmasam, siz keyin osonlikcha bilib olasiz. Mening xizmatimni tekshirgani kelganingizda, qo‘y–echkilarimning orasida birortasi ola–bula, xol–xol bo‘lmasa, yoki qo‘zilarimning orasida ham birortasi qora bo‘lmasa, meni o‘g‘ri deb hisoblashingiz mumkin.

34 — Yaxshi, sen aytganday bo‘la qolsin, — dedi Lobon.

35 Lobon o‘sha kuni oqi bor xol–xol va olachipor taka hamda urg‘ochi echkilarni suruvdan ajratib oldi, qora qo‘zilarni ham ayirib oldi. Hammasini o‘g‘illarining ixtiyoriga berdi. 36 Ular o‘sha qo‘y–echkilarni Yoqub turgan joydan uch kunda boradigan joyga olib ketdilar. Yoqub esa Lobonning qolgan qo‘y–echkilarini boqaverdi.

37 Yoqub terak, bodom va chinor daraxtining novdalaridan olib, novdalarni yo‘l–yo‘l
qilib po‘stlog‘ini shildi. 38 So‘ngra u po‘stlog‘i tozalangan novdalarni qo‘y–echkilarga
ko‘rinadigan joyga — suv ichadigan oxurlar ichiga qo‘ydi*. Chunki Lobonning qo‘y–
echkilarini sug‘organi olib kelganda, hayvonlar shu yerda juftlashar edi. 39 Qo‘y–echkilar
oq yo‘li bor novdalarni ko‘rib turganda juftlashib, yo‘l–yo‘l, olachipor va xol–xol nasl
berardi. 40 Yoqub Lobonning boshqa qo‘y–echkilaridan sovliqlarini* ajratib oldi. Sovliq
qo‘ylar juftlashayotganda, Yoqub qo‘ylarning yuzini Lobonning suruvidagi yo‘l–yo‘l va
qop–qora hayvonlarga qaratib qo‘yardi. Shu tariqa Yoqub Lobonning qo‘y–echkilaridan
o‘zining suruvini vujudga keltirdi* va Lobonnikidan alohida qilib qo‘ydi. 41 Suruvdagi
sog‘lom urg‘ochi qo‘y yoki echkilar juftlashishga tayyor bo‘lganda, Yoqub po‘stlog‘i
archilgan novdalarni hayvonlarning oxuriga tashlab qo‘yardi. Hayvonlar yo‘l–yo‘l
novdalarni ko‘rib turganlarida juftlashardilar. 42 Lekin u nimjon hayvonlarga shunday
qilmasdi. Oqibatda Lobon nimjon qo‘y–echkilarga, Yoqub esa sog‘lom qo‘y–echkilarga
ega bo‘lib qoldi. 43 Shu yo‘l bilan Yoqubning qo‘y–echkilari tezlik bilan ko‘payib bordi, u
juda ham boyib ketdi, ko‘plab qul va cho‘rilarga, tuya va eshaklarga ega bo‘ldi.

31–BOB

Yoqub Lobonnikidan qochib ketadi

1 Lobonning o‘g‘illari ming‘ir–ming‘ir qila boshladilar: “Yoqub otamizni xonavayron
qildi. U butun boyligini otamizning boyligidan olgan.” Yoqub bu gaplarni eshitib qoldi.
2 Yoqub sezdiki, Lobon unga anchagina sovuq munosabatda bo‘lyapti. 3 Egamiz ham
Yoqubga:

— Ota–bobolaringning yurtiga, qarindosh–urug‘laringning oldiga qayt, Men sen
bilan birga bo‘laman, — dedi.

4 Yoqub yaylovda qo‘y–echkilarini boqayotganda, Rohila bilan Leaxni shu yerga
chaqirtirdi. 5 Ular kelgach, dedi:

— Ko‘rib turibman, otalaringizning menga munosabati oldingiday emas. Lekin
otamning Xudosi men bilan birga. 6 O‘zlaringiz bilasizlar, men sizlarning otangizga
kuchim boricha xizmat qildim. 7 U meni aldab, xizmat haqimni o‘n marta o‘zgartirdi.
Lekin u menga zarar yetkazishiga Xudo yo‘l qo‘ymadi. 8 Agar otangiz: “Suruvdagi
olachipor qo‘y–echkilar sening xizmat haqing bo‘ladi”, deb aytgan bo‘lsa, butun suruv
olachipor bola beraverdi. “Yo‘l–yo‘li sening xizmat haqing bo‘ladi”, deb aytgan bo‘lsa,
butun suruv yo‘l–yo‘l bola beraverdi. 9 Xudo shu yo‘l bilan otangizning qo‘y–echkilarini
tortib olib, menga berdi. 10 Juftlashish mavsumi paytida bir kuni tush ko‘rdim. Qarasam,
suruvdagi juftlashgan takalar yo‘l–yo‘l, xol–xol va olachipor ekan. 11 Tushimda Xudoning
farishtasi: “Yoqub!” deb chaqirdi. “Labbay!” deb javob berdim men. 12 Farishta menga
aytdi: “Qara, juftlashgan takalarning hammasi yo‘l–yo‘l, xol–xol va olachipor. Bularning
hammasini Men qilyapman. Chunki Lobonning senga munosabatini ko‘rganman. 13 Men
Baytilda senga zohir bo‘lgan Xudoman*. U yerda sen tosh ustunga zaytun moyi surtib,
Menga xizmat qilish uchun qasam ichgan eding. Endi hoziroq bu yurtdan ket, o‘zingning
ona yurtingga qayt.”

14 Shunda Rohila bilan Leax Yoqubga:

— Endi otamizdan bizga hech qanday meros tegmas ekan–da, — deyishdi. 15 — Biz
otamizga xuddi begonalarday bo‘lib qoldik. U bizni sotdi, bizning evazimizga nima olgan

bo‘lsa, hammasini sarf qilib bo‘ldi*. 16 Xudo otamizdan sizga olib bergan hamma
boyliklar bizniki va bolalarimizniki. Endi esa Xudo sizga nima aytgan bo‘lsa, shuni qiling.
17-18 Shunday qilib, Yoqub Kan’on yurtiga — otasining oldiga qaytib ketishga
tayyorlandi. Xotinlarini va bolalarini tuyalarga mindirdi. Qo‘y–echkilarini oldiga solib
haydadi, Paddon–Oramda* topgan hamma mol–mulkini oldi.
19 Lobon qo‘ylarining junini qirqqani ketdi. U yo‘q paytida Rohila otasining xonaki
xudolarini* o‘g‘irlab oldi. 20 Buning ustiga, Yoqub ham, biz ketyapmiz, deb Lobonga*
aytmasdan, uni aldab jo‘nab qoldi. 21 Yoqub hamma mol–mulkini olib, Furot daryosini
kechib o‘tdi va Gilad qirlariga* yo‘l oldi.

Lobon Yoqubni quvadi

22 Oradan uch kun o‘tgach, Lobonga: “Yoqub qochib ketibdi” degan xabar yetib bordi.
23 Lobon qarindosh–urug‘idan erkaklarni yoniga olib, Yoqubni quvib ketdi. Yoqubni yetti
kun quvlagandan keyin, oxiri Gilad qirlarida unga yetib oldi. 24 Lekin o‘sha kuni kechasi
Lobon tush ko‘rdi. Tushida Xudo zohir bo‘lib: “Ehtiyot bo‘l, Yoqubga yaxshi–yomon gap
qilib yurma”, dedi.
25 Lobon Yoqubga yetib olganda, Yoqub Gilad qirlarida chodir tikkan edi. Lobon ham
qarindosh–urug‘lari bilan Yoqubga yaqinroq joyga chodirini tikdi. 26 Lobon Yoqubga:
— Bu nima qilganing? Meni aldab ketibsan–ku! — dedi. — Qizlarimni ham, xuddi
urushdagi asiralarday, o‘g‘irlab ketibsan. 27 Nimaga meni aldab, hech narsa demasdan,
yashirincha qochib qolding? Agar bir og‘iz aytganingda, childirma, lira chalib, o‘yin–
kulgi qilib, xursandchilik bilan kuzatib qo‘ygan bo‘lardim. 28 Sen hatto nevaralarim bilan
qizlarimni o‘pib, yaxshi boringlar, deb aytishimga ham imkon bermading. Qilgan ishing
— g‘irt ahmoqlik. 29 Senga yomonlik qilishga kuchim yetadi. Lekin kecha tunda
otangning Xudosi menga zohir bo‘lib: “Ehtiyot bo‘l, Yoqubga yaxshi–yomon gap qilib
yurma”, deb aytdi. 30 Ahvolingni tushunaman, otangning uyini sog‘ingansan, shuning
uchun ketgansan. Lekin nimaga xudolarimni o‘g‘irlading?
31 — Qizlaringizni mendan tortib olasiz, deb o‘ylab, qo‘rqqan edim, — dedi Yoqub.
32 — Lekin sizning xudolaringizga kelsak, ularni kim olgan bo‘lsa, o‘ldirilsin.
Qarindoshlarimizning guvohligida narsalaringizni izlab ko‘ring. Agar sizning
narsalaringiz bo‘lsa, olavering.
Lobonning xudolarini Rohila o‘g‘irlaganini Yoqub bilmas edi.
33 Lobon xudolarini qidirib, avvalo Yoqubning chodiridan izladi. Keyin Leaxning
chodiriga, undan keyin ikkala cho‘rining* chodiriga kirdi, lekin xudolarini topa olmadi.
Oxirida Rohilaning chodiriga kirdi. 34 Rohila xudolarni tuya egarining ichiga yashirib,
o‘zi egarga o‘tirib olgan edi. Lobon chodirning hamma yog‘ini axtarsa ham, xudolarini
topa olmadi. 35 Rohila otasiga:
— Sizning oldingizda o‘rnimdan turmaganim uchun mendan jahlingiz chiqmasin,
otajon, — dedi. — Hozir ayollar kasaliga yo‘liqqan paytim.
Lobon xudolarini qancha qidirmasin, topa olmadi.
36 Yoqub qattiq g‘azablanib, Lobonni urishib berdi:
— Aybim nima ekan?! Qaysi gunohim uchun meni ta’qib qilyapsiz?! 37 Hamma
narsalarimni titkilab chiqdingiz. Endi menga ko‘rsating–chi, biror narsangizni
topdingizmi? Topgan bo‘lsangiz, qani, qarindosh–urug‘larimiz oldiga o‘sha narsalarni
qo‘ying, ikkalamizdan qaysi birimiz haq ekanimizni ular hukm qilsin! 38 Yigirma yil men

sizning eshigingizda bo‘ldim. Ana shu davrda bironta sovliq qo‘yingiz, echkingiz chala tug‘ib qo‘ymadi, suruvingizdan bironta qo‘chqorni yeb qo‘ymadim. 39 Yovvoyi hayvonlar bo‘g‘izlab tashlaganlarini sizga ko‘rsatmasdan, zararni o‘z bo‘ynimga olardim. Qo‘yingiz kunduzi yo‘qolganmi, yoki kechasi yo‘qolganmi, baribir, siz mendan talab qilardingiz. 40 Kunduzi jazirama issiqda, kechalari sovuqda, tunlarni uyqusiz o‘tkazib, sizga xizmat qildim. 41 Yigirma yil sizning xonadoningizda bo‘ldim: o‘n to‘rt yil — ikkala qizingiz uchun, olti yil — qo‘y–echkilarga ega bo‘lishim uchun xizmat qildim. Xizmat haqimni o‘n marta o‘zgartirdingiz. 42 Agar bobom Ibrohimning Xudosi, otam Is’hoq sajda qiladigan Xudo* men bilan bo‘lmaganda edi, shubhasiz, siz meni quppa–quruq qaytargan bo‘lardingiz. Lekin Xudo mening qiynalganimni, og‘ir mehnatimni ko‘rdi. Shu sababdan U o‘tgan kecha sizga zohir bo‘lib, nohaqligingizni aytgan.

Yoqub bilan Lobon o‘rtasidagi ahd

43 Shundan keyin Lobon Yoqubga dedi:

— Mana bu ayollar — mening qizlarim, mana bu bolalar — mening nabiralarim, qo‘y–echkilar ham meniki. Sen ko‘rib turgan hamma narsa — meniki. Lekin hozir o‘z qizlarimga, nabiralarimga biror narsa qila olarmidim?! 44 Kel, endi ikkovimiz ahd qilaylik, toki bu ahd ikkovimiz yarashganimizni isbotlasin.

45 Yoqub bir toshni olib, yodgorlik qilib qo‘ydi. 46 Keyin u qarindosh–urug‘lariga: “Tosh to‘plab kelinglar!” dedi. Ular ham tosh to‘plab, bir uyum hosil qilishdi va o‘sha tosh uyumining yonida tamaddi qilishdi. 47 Bu joy Lobonning tilida Yogar–Saduto, Yoqubning tilida Galed* deb ataladigan bo‘ldi. 48 Lobon: “Bu tosh uyumi bugun sen bilan mening oramizda guvohdir”, deb bu joyni Galed deb ataydigan bo‘ldi. 49 Shuningdek, u: “Biz bir–birimizdan ayrilganimizdan keyin, Egam sen bilan meni kuzatib tursin”, deb bu joyni Mispax* deb atadi. So‘ng shunday dedi:

50 — Agar qizlarimning dilini og‘ritsang yoki ularning ustiga xotin olsang, esingda tut, hatto men bilmagan taqdirda ham, Xudo ko‘rib turadi. Uning O‘zi sen bilan mening o‘rtamizda guvohdir.

51 So‘ng Lobon Yoqubga yana dedi:

— Ikkovimizning o‘rtamizda men o‘rnatgan mana bu tosh uyumi bilan ustunga qara. 52 Bular bizning ontimizga guvoh bo‘lib, ikkovimizning o‘rtamizda turibdi. Men senga zarar yetkazish niyatida bu tosh uyumidan nariga o‘tmayman, sen ham menga zarar yetkazish niyatida bu tosh uyumi va ustundan beriga o‘tmasliging lozim. 53 Ota–bobolarimizning Xudosi — sening bobong Ibrohimning Xudosi va mening bobom Naxo‘rning Xudosi — o‘rtamizda hakam bo‘lsin.

Shunday qilib, Yoqub otasi Is’hoq sajda qiladigan Xudo nomi bilan qasam ichdi. 54 Yoqub qurbonlik qilib, hammani ziyofatga taklif qildi. Ular tunni qirda o‘tkazishdi.

55 Ertasiga Lobon saharda turdi. Qizlarini, nabiralarini o‘pib, hammalarini duo qildi. So‘ngra uyiga qaytib ketdi.

32–BOB

Yoqub Esovni kutib olishga tayyorlanadi

1 Yoqub oila a’zolarini boshlab yo‘lda ketayotgan edi, Xudoning farishtalari unga peshvoz chiqdilar. 2 Yoqub ularni ko‘rib: “Bu Xudoning lashkargohi!” dedi. Shuning uchun bu joyga Moxanayim* deb nom berdi.

3 Yoqub borishidan oldin Seir, ya’ni Edom yurtida* istiqomat qilayotgan akasi Esovga
xabarchilarni yubordi. 4 Yoqub xabarchilarga shunday ko‘rsatma bergan edi:
— Esov hazratlariga shunday deb aytinglar: “Qulingiz Yoqub aytmoqdaki, u shu
paytgacha Lobonning xonadonida yashadi. 5 Endi mollar, eshaklar, qo‘y–echkilar, qul va
cho‘rilarga ega bo‘ldi. Kelayotganidan sizni xabardor qilish uchun bizni yubordi. Uning
umidi shuki, siz unga mehr–muruvvat ko‘rsatsangiz.”
6 Xabarchilar qaytib kelib, Yoqubga shunday dedilar: “Akangiz Esovning oldiga
bordik. U sizni kutib olishga kelyapti, yonida to‘rt yuzta odami ham bor.” 7 Yoqub bu
xabarni eshitdi–yu, qo‘rqib, vahimaga tushdi. Xonadonidagi odamlarini, qo‘y–
echkilarini, mol podalarini, tuyalarini ikki qismga bo‘ldi. 8 U: “Agar Esov kelib, bitta
qismni qirib tashlasa, narigi qismi qutulib omon qoladi–ku”, deb o‘yladi.
9 Keyin Yoqub ibodat qildi:
— Ey bobom Ibrohimning, otam Is’hoqning Xudosi! Ey Egam! Menga: “O‘z yurtingga,
qarindoshlaring oldiga qaytib bor, senga muvaffaqiyat keltiraman”, deb va’da bergan
eding. 10 Ko‘rsatgan sadoqatingga, inoyatingga men, quling, loyiq emasman. Ilgari Iordan
daryosini kechib o‘tganimda, tayog‘imdan boshqa hech narsam yo‘q edi. Endi oila
a’zolarim ikki qo‘rg‘onni to‘ldiradigan bo‘ldi. 11 Iltijo qilaman, meni Esov akamning
qo‘lidan qutqargin. U kelib, men bilan birga xotinlarimni, bolalarimni o‘ldiradi, deb
qo‘rqaman. 12 Sen esa menga: “Senga muvaffaqiyat keltiraman, sening naslingni
dengizdagi qumdek ko‘paytiraman, ko‘pligidan naslingni sanab bo‘lmaydi”, deb va’da
bergan eding. Iltijo qilaman, va’dangni yodingda tut.
13-15 Yoqub tunni ibodat qilgan o‘sha joyda o‘tkazdi. Keyin suruvidan akasi Esovga
ikki yuzta ona echki, yigirmata taka, ikki yuzta sovliq va yigirmata qo‘chqor, o‘ttizta
sog‘in tuyani bo‘taloqlari bilan, qirqta sigir va o‘nta buqa, yigirmata mocha eshak va
o‘nta erkak eshakni hadya qilish uchun tanlab oldi. 16 Yoqub bu hayvonlarni podalarga
bo‘lib, xizmatkorlariga topshirar ekan, ularga shunday dedi:
— Mendan oldin yuringlar, har bir podaning orasida bo‘sh masofa qoldiringlar.
17 Eng oldingi podani haydab borayotgan xizmatkoriga u shunday ko‘rsatma berdi:
— Esov akam seni uchratib qolib: “Kimning xizmatkorisan? Qayerga ketyapsan?
Oldingdagi poda kimniki?” deb so‘raganda, 18 sen: “Bu podalar qulingiz Yoqubniki,
bularni siz, to‘ramga hadya qilib yubordilar, o‘zlari ham orqamizda kelyaptilar”, deb
aytgin.
19 Yoqub podani haydab borayotgan ikkinchi, uchinchi, xullas, hamma
xizmatkorlariga ham bir xil ko‘rsatma berib:
— Esovni uchratib qolganingizda, o‘sha gaplarimni aytinglar, — dedi. 20 “Qulingiz
Yoqub orqamizda kelyaptilar”, deb albatta aytinglar, — deb ta’kidladi. Chunki Yoqub:
“O‘zimdan oldin yuborgan hadyalarim bilan Esov akamning ko‘nglini yumshataman, u
bilan yuzma–yuz uchrashganimizda, meni kechirsa ajabmas”, deb umid qilayotgan edi.
21 Shunday qilib, Yoqub o‘zi borishidan oldin, hadyalarni jo‘natib yubordi va bu kechani
chodir tikkan joyda o‘tkazdi.

Yoqub Paniyolda kurash tushadi

22 O‘sha kuni tunda Yoqub o‘rnidan turdi. Ikkala xotinini, ikkala cho‘risini*, o‘n bitta
bolasini Yavoq daryosi* kechuvidan o‘tkazdi. 23 Ular daryoning narigi qirg‘og‘iga o‘tib
bo‘lganlaridan keyin, butun mol–mulkini ham o‘tkazdi. 24 Yoqub daryoning bu tomonida

yolg‘iz o‘zi qoldi. O‘sha yerda bir odam bilan tong otguncha kurashdi. 25 O‘sha odam
ko‘rdiki, Yoqubni mag‘lub qila olmas ekan. Bir payt u Yoqubning bo‘ksasiga* bir urgan
edi, soni bo‘g‘inidan chiqib ketdi.
26 — Meni qo‘yib yubor, tong otyapti, — dedi o‘sha odam.
— Meni duo qilmasang, ketkizmayman, — hansirab dedi Yoqub.
27 — Isming nima? — deb so‘radi o‘sha odam.
— Yoqub, — deb javob berdi u.
28 — Bundan keyin sening isming Yoqub emas, Isroil* bo‘lsin, — dedi o‘sha odam. —
Chunki sen Xudo va insonlar bilan olishib, g‘olib chiqding.
29 — Iltimos, ismingni ayt! — dedi Yoqub.
— Nimaga Mening ismimni so‘rayapsan? — deb so‘radi o‘sha odam. Shunday dedi–
yu, u Yoqubni duo qildi. 30 Yoqub: “Xudo bilan yuzma–yuz bo‘libman–u, hayotim
saqlanib qolibdi–ya”*, deb bu joyga Paniyol* degan nom berdi. 31 Yoqub Paniyoldan*
ketayotganda, quyosh chiqqan edi. Soni og‘riyotgani uchun u oqsoqlanib yurardi.
32 O‘sha odam Yoqubning bo‘ksasiga urgani sababli, Isroil xalqi o‘sha tunda yuz bergan
voqeaning xotiri uchun bugungacha* sonning payini yemaydi.

33–BOB

Yoqub bilan Esov uchrashadi

1 Yoqub qarasa, Esov kelayotgan ekan, yonida to‘rt yuzta odami ham bor. Yoqub
bolalarini Leaxga, Rohilaga va ikkala cho‘risiga* taqsimladi. 2 Cho‘rilari bilan ularning
bolalarini eng oldinga, Leax bilan uning bolalarini ulardan keyin, Rohila bilan Yusufni
esa oxiriga qo‘ydi. 3 Yoqubning o‘zi ularning oldida bordi. Akasining oldiga yetib
borguncha yetti marta egilib ta’zim qildi.
4 Esov ham ukasini kutib olgani yugurib borib, uni quchoqlab oldi. Yoqubning
bo‘yniga osilib, o‘pdi. Ikkovi ham yig‘lar edi. 5 Esov ayollarga va bolalarga qarab:
— Yoningdagi bu odamlar senga kim bo‘ladi? — deb so‘radi.
— Men, qulingizga Xudo inoyat qilib bergan bolalarim, — dedi Yoqub.
6 Shundan keyin cho‘rilar bilan ularning bolalari Esovning oldiga kelishib, unga egilib
ta’zim qildilar. 7 Ulardan keyin Leax bilan uning bolalari yaqin kelib, egilib ta’zim
qilishdi. Oxirida Yusuf bilan Rohila yaqin kelib, egilib ta’zim qildilar.
8 — Menga suruvlaru podalar jo‘natibsan, bundan maqsading nima edi? — deb
so‘radi Esov.
— Hazratimning iltifotiga sazovor bo‘lishim uchun hadya qilib yuborgan edim, —
deb javob berdi Yoqub.
9 — Rahmat, uka, o‘zimniki juda ko‘p, o‘zingniki o‘zingga buyursin, — dedi Esov.
10 — Yo‘q, iltimos, agar meni iltifotingizga sazovor bilsangiz, hadyalarimni olasiz, —
deb turib oldi Yoqub. — Siz meni shunday yaxshi kutib oldingizki, men uchun sizning
yuzingizni ko‘rish — Xudoning yuzini ko‘rishga o‘xshaydi. 11 Iltimos qilaman,
hadyalarimni oling. Xudo menga inoyat qilib, kerakli hamma narsani berdi.
Yoqub qattiq iltimos qilavergandan keyin, oxiri, Esov hadyalarni olishga rozi bo‘ldi.
12 — Qani, endi ketaylik, men senga yo‘l ko‘rsatib boraman.
13 Yoqub esa shunday dedi:
— O‘zingiz ko‘rib turibsiz, hazratim, bolalarim chiniqmagan, qo‘y–sigirlarim ham

bolalagan. Qo‘y–sigirlarimni bir kungina qistab haydasalar, butun chorva nobud bo‘ladi.
14 Shuning uchun mendan oldinda ketaversangiz. Men chorvaning yurishiga va
bolalarning qadamiga qarab sekin boraveraman. Siz bilan Seir yurtida* uchrashamiz.
15 — Bo‘pti, bo‘lmasa, odamlarimdan ba’zilarini sen bilan qoldiray, ham sizlarga yo‘l
ko‘rsatib boradi, ham qo‘riqlab ketadi, — dedi Esov.
— Nima qilasiz ovora bo‘lib?! Menga ko‘p mehribonlik ko‘rsatyapsiz, shunga ham
rahmat.
16 Esov o‘sha kuni Seirga qaytib ketdi. 17 Yoqub esa oilasi bilan Suxotga qarab ketdi. U
yerda o‘ziga bir uy, chorvasi uchun qo‘ralar qurdi. Shuning uchun bu joyga Suxot* deb
nom berildi.
18 Shunday qilib, Yoqub Paddon–Oramdan* Kan’on yurtidagi Shakam shahriga*
eson–omon qaytib keldi. Shahar tashqarisida chodirlarini tikdi. 19 U chodir tikkan joylar
Xamo‘r degan odamning o‘g‘illariga qarashli mulk edi. Xamo‘r Shakamning otasi edi.
Yoqub bu joylarni Xamo‘rning o‘g‘illaridan yuz bo‘lak kumushga* sotib oldi. 20 Bu yerda
u qurbongoh qurib, bu joyni “Xudo Isroilning Xudosidir”* deb atadi.

34–BOB

Dinaning nomusi bulg‘anadi

1 Bir kuni Yoqub va Leaxning qizi Dina shu yerlik qizlarni ko‘rishga bordi. 2 Bu
yerning begi Xamo‘r bo‘lib, u Xiv urug‘idan edi. Xamo‘rning o‘g‘li Shakam qizni ko‘rib
qolib, ushladi va uning nomusiga tegdi. 3 Shakam Dinani qattiq sevib qoldi, qizning
sevgisini qozonishga harakat qildi. 4 Otasiga: “Shu qizni menga olib bering”, deb aytdi.
5 Yoqub qizining nomusi toptalganini eshitdi. Yoqubning o‘g‘illari esa dalada mol–
qo‘ylarini boqib yurgan edilar. Ular qaytib kelgunlaricha Yoqub o‘zini bosib turdi.
6 Shakamning otasi Xamo‘r bu ish yuzasidan gaplashgani Yoqubning oldiga keldi. 7 Shu
paytda Yoqubning o‘g‘illari daladan kelib qolishdi. Singillari sharmanda bo‘lganini
eshitishdi–yu, qattiq g‘azablanib, tutaqib ketdilar. Shakam Yoqubning qizini bulg‘ab,
Isroilda sharmandali ish qilgan edi. Bunday ish hech bo‘lmasligi kerak edi.
8 Xamo‘r ularga:
— O‘g‘lim Shakamning qizingizga ishqi tushib qolibdi, iltimos, qizingizni o‘g‘limga
bersangizlar, — dedi. 9 — Bir–birimiz bilan quda–andachilik qilaylik, qizlaringizni
o‘g‘illarimizga olib beraylik, o‘g‘illaringizga qizlarimizni olib beringlar. 10 Shunda
yurtimizda biz bilan birga, xohlagan yeringizda yashayverasizlar, bemalol savdo–sotiq
qilaverasizlar*, yerlarimizdan o‘zlaringizga mulk orttirasizlar.
11 Shakam ham Dinaning otasi bilan akalariga iltimos qilib, dedi:
— Menga muruvvat qilinglar, Dinani menga beringlar, evaziga istagan
narsalaringizni beraman. 12 Qancha qalin yoki sovg‘a talab qilasizlar — men uchun
ahamiyati yo‘q, beraman. Faqat qizingizga uylansam bo‘ldi.
13 Shakam Dinani sharmanda qilgani uchun, Shakam bilan Xamo‘rni Dinaning akalari
aldadilar. 14 Ular Shakam bilan Xamo‘rga dedilar:
— Singlimizni qandaydir sunnatsiz odamga berolmaymiz. Agar bersak, biz isnodga
qolamiz*. 15 Biz faqat bir shart bilan rozi bo‘lamiz: hamma erkaklaringiz bizga o‘xshab
sunnat qilinishlari kerak. 16 Shunda biz qizlarimizni sizlarga beramiz, sizlarning
qizlaringizni olamiz. Sizlarning orangizda yashab, sizlar bilan bir xalq bo‘lamiz. 17 Lekin

bizning shartimizga koʻnmasdan, sunnat qilinmasangizlar, singlimizni* olib ketamiz.
18 Ularning gapiga Xamoʻr bilan Shakam bajonidil rozi boʻlishdi. 19 Shakam Dinaga
xushtor boʻlib qolganidan, bu talabni bajarishni tezlashtirdi. U oilasida hurmatga
sazovor, eng obroʻli odam edi. 20 Xamoʻr bilan Shakam shahar darvozasiga* kelib,
shaharning oqsoqollariga shunday deyishdi:
21 — U odamlar — bizning doʻstlarimiz. Ular bizning yurtimizda yashab, savdo–sotiq
qilaversinlar. Yurtimiz keng, ularga ham yetadi. Shunda bir–birimiz bilan qiz olib, qiz
berishamiz. 22 Ular faqat bir shart bilan bizning oramizda yashab, biz bilan bir xalq
boʻlishga rozi: oramizdagi hamma erkaklar, ular singari, sunnat boʻlishlari kerak ekan.
23 Agar biz shunday qilsak, ularning hamma qoʻy–echkilari, mol–mulki bizniki boʻladi.
Kelinglar, ularning aytganlariga rozi boʻlaylik, toki ular bizning oramizda yashab
qolishsin.
24 Shahar darvozasiga borganlar Xamoʻr bilan uning oʻgʻli Shakamning gaplarini
eshitgach, rozi boʻldilar. Butun shahar erkaklari sunnat qilindilar.
25 Oradan uch kun oʻtdi. Shaharning hamma erkaklari sunnat qilinganlari uchun hali
ham ogʻrib yotgan edilar. Yoqubning ikki oʻgʻli — Dinaning akalari Shimoʻn bilan Levi*
qilichlarini oldilar va bamaylixotir shaharga kirdilar. Shahardagi hamma erkakni
oʻldirdilar. 26 Xamoʻr bilan uning oʻgʻli Shakamni ham oʻldirib, Shakamning uyidan
Dinani olib ketdilar. 27 Yoqubning qolgan oʻgʻillari, singlimizni sharmanda qilganlari
uchun qasos olamiz deb, jasadlarni talab, shaharni talon–taroj qildilar. 28 Ular
shahardagi va dalalardagi jamiki qoʻy–echkilarni, mol podalarini, eshaklarni olib
ketdilar. 29 Shahar xalqining hamma boyliklarini, uylaridagi hamma narsasini oʻlja qilib,
bolalarini va ayollarini asir qilib olib ketdilar. 30 Shunda Yoqub Shimoʻn bilan Leviga
dedi:
— Sizlar boshimga balo keltirdingiz. Endi bu yurtdagi Kan’on va Pariz xalqlari,
qolaversa, hamma meni yomon koʻradi. Biz ozchilik boʻlsak, axir. Ular birgalashib hujum
qilib qolgudek boʻlsa, hammamiz qirilib ketamiz–ku!
31 Shunda oʻgʻillari:
— Singlimizga fohishaday muomala qilishlariga yoʻl qoʻymaymiz! — deb e’tiroz
bildirdilar.

35–BOB

Xudo Baytilda Yoqubga marhamat qiladi

1 Xudo Yoqubga dedi:
— Qani, otlan, Baytilga koʻchib bor, oʻsha yerda joylashib, Menga atab qurbongoh
oʻrnat. Sen akang Esovdan qochib ketayotganingda, Men u yerda senga zohir boʻlgan
edim*.
2 Yoqub xonadonidagilarga va yonidagilarga aytdi:
— Begona xudolaringizni yoʻqotinglar, oʻzlaringizni poklab, toza kiyimlaringizni
kiyinglar. 3 Endi bu yerdan ketib, Baytilga boramiz. U yerda men Xudoga qurbongoh
quraman. Kulfatda qolganimda, Xudo menga madad bergan edi. Qayerga borsam, U men
bilan birga boʻldi.
4 Hammalari begona xudolarini, ziraklarini* Yoqubga berishdi. Yoqub bu narsalarni
Shakam yaqinidagi eman daraxtining* ostiga koʻmdi.

5 Yoqub xonadonidagilarini boshlab yoʻlga tushganda, Xudo butun atrofdagi
shaharlar aholisiga qoʻrquv yubordi. Shuning uchun hech kim ularni ta'qib qilmadi.
6 Nihoyat, Yoqub butun xonadon ahlini boshlab Luz shahriga yetib keldi. (Luz hozir
Baytil deb yuritiladi.) 7 Yoqub bu yerda bir qurbongoh qurib, bu joyni Baytilning Xudosi*
deb atadi. Yoqub akasidan qochib ketayotganda, Xudo Oʻzini unga shu yerda zohir
qilgan edi.
8 Shu orada Rivqoning enagasi Dobira vafot etdi*. Uni Baytilning yonidagi eman
daraxti ostiga dafn qildilar. Oʻshandan buyon bu daraxt Yigʻi daraxti* deb yuritiladi.
9 Yoqub Paddon–Oramdan* qaytib kelgandan keyin, Xudo unga yana zohir boʻldi va
unga marhamat koʻrsatib, dedi: 10 "Sening isming Yoqub, lekin bundan keyin seni
Yoqub* deb chaqirmaydilar, sening isming Isroil* boʻladi." Shuning uchun u Isroil deb
nom oldi.
11 Xudo shunday dedi:
— Men Qodir Xudoman, barakali boʻl, nasling koʻp boʻlsin. Buyuk xalq, hatto koʻp
xalqlar sendan paydo boʻladi. Sen shohlarning bobosi boʻlasan. 12 Men Ibrohimga va
Is'hoqqa va'da qilgan yurtni senga beraman. Sendan keyin bu yerni naslingga beraman.
13 Shundan keyin Xudo Yoqubga gapirgan joyidan ketdi. 14 Yoqub oʻsha joyga
yodgorlik toshi oʻrnatdi. Soʻngra yodgorlik toshi ustiga Xudoga atab sharob va zaytun
moyi quydi. 15 Yoqub bu joyga Baytil* deb nom berdi.

Rohila vafot etadi

16 Yoqub bilan uning oilasi Baytildan chiqib, Efrat tomon yoʻl oldilar. Ular Efratga hali
yetib bormasdan, Rohilaning koʻzi yoriydigan payti keldi, uni qattiq toʻlgʻoq tutib qoldi.
17 Rohila toʻlgʻoqdan koʻp azob chekkandan keyin, nihoyat, doyasi: "Qoʻrqma, yana oʻgʻil
tugʻding", dedi. 18 Rohila jon berayotganda, oxirgi nafasda oʻgʻlining ismini Benoʻn deb
qoʻydi. Otasi esa unga Benyamin* deb ism qoʻydi. 19 Shunday qilib, Rohila vafot etdi va
Efrat yoʻlida dafn qilindi. (Efrat hozir Baytlahm* deb yuritiladi.) 20 Yoqub Rohilaning
qabriga yodgorlik toshi oʻrnatdi. Bu tosh shu kungacha* bor.
21 Shundan keyin Yoqub* yana koʻchib, Eder minorasi ortida chodirini tikdi.

Yoqubning oʻgʻillari

22 Yoqub oʻsha yerda yashayotganda, Ruben otasining choʻrisi* Bilxaxning yoniga
kirdi*. Yoqub buni eshitib qoldi.
Yoqubning oʻn ikkita oʻgʻli bor edi:

23 Leax tuqqan oʻgʻillari — Ruben (Yoqubning toʻngʻich oʻgʻli), Shimoʻn, Levi,
Yahudo, Issaxor va Zabulun.
24 Rohila tuqqan oʻgʻillari — Yusuf bilan Benyamin.
25 Rohilaning choʻrisi Bilxax tuqqan oʻgʻillari — Dan bilan Naftali.
26 Leaxning choʻrisi Zilpo tuqqan oʻgʻillari — Gad bilan Osher.

Yoqubning Paddon–Oramda tugʻilgan oʻgʻillari ana shular edi.

Is'hoq vafot etadi

27 Yoqub Mamrega — Xirat–Arbaga otasining uyiga keldi. (Xirat–Arba hozir Xevron
deb yuritiladi.) Ibrohim va Is'hoq Xevronda istiqomat qilgan edilar. 28 Is'hoq 180 yil umr
koʻrdi. 29 U keksayib, yoshini yashab olamdan oʻtdi. Oʻgʻillari Esov bilan Yoqub uni dafn

qilishdi.

36–BOB

Esovning nasl–nasabi

1 Esovning nasl–nasabi tarixi quyidagichadir (u Edom ismi bilan taniqli):

2 Esov Kan'onlik qizlarga uylangan edi. Birinchi xotinining ismi Oida bo'lib, Xet
xalqidan Elo'n deganning qizi edi. Ikkinchisiniki Oxolibom bo'lib, Xiv xalqidan Anah
deganning qizi edi. Bobosining ismi Zibo'n edi. 3 Uchinchi xotinining ismi Bosimat bo'lib,
Ismoilning qizi edi. Qizning Navayot degan akasi bor edi. 4 Oida Esovga Elifazni, Bosimat
Ruvelni, 5 Oxolibom esa Youb, Yalom va Ko'raxni tug'ib berdi. Esovning Kan'on yurtida
tug'ilgan o'g'illari ana shulardir.
6 So'ngra Esov xotinlarini, bolalarini, xonadonidagi hamma odamlarini, podasiyu
suruvlarini, Kan'on yurtida topgan jamiki boyliklarini olib, ukasi Yoqubdan uzoqroq
yerga ko'chib ketdi. 7 Ikkovining podalari va suruvlari benihoya ko'p bo'lganidan, yer
torlik qilib qolgan edi. 8 Shuning uchun Esov, ya'ni Edom, Seir tog'lariga* borib
o'rnashdi.
9 Seir tog'laridagi Edom xalqining ota–bobosi Esovning nasl–nasabi mana bulardir:

10 Esovning xotinlari Oida va Bosimat tuqqan o'g'illari quyidagilardir: Oida
Elifazni tug'di, Bosimat Ruvelni tug'di.
11 Elifaz besh o'g'il ko'rdi: Temon, O'mar, Zafo', Gatam va Xanaz. 12 Elifazning
cho'risi* Timna ham unga o'g'il tug'ib, ismini Omolek qo'ydi. Esovning xotini
Oidaning nabiralari ana shular edi.
13 Ruvel to'rt o'g'il ko'rdi: Naxat, Zerax, Shammox va Mizzo. Bular Esovning xotini
Bosimatning nabiralari edi.
14 Esovning uchinchi xotini Anahning qizi Oxolibom unga uch o'g'il tug'ib berdi.
O'g'illarining ismi Youb, Yalom va Ko'rax edi.

15 Esovning o'g'illari va nabiralari quyidagi urug'larning yo'lboshchilari bo'ldilar:

Esovning to'ng'ich o'g'li Elifazning o'g'illari quyidagi urug'larning yo'lboshchilari
bo'ldilar: Temon, O'mar, Zafo', Xanaz, 16 Ko'rax, Gatam va Omolek urug'lari.
Edom yurtidagi bu urug'lar Esovning xotini Oidadan kelib chiqqan edi.
17 Esov o'g'li Ruvelning o'g'illari quyidagi urug'larning yo'lboshchilari bo'ldilar:
Naxat, Zerax, Shammox va Mizzo urug'lari. Edom yurtidagi bu urug'lar
Esovning xotini Bosimatdan paydo bo'lgan edi.
18 Esovning xotini Oxolibomning o'g'illari quyidagi urug'larning yo'lboshchilari
bo'ldilar: Youb, Yalom va Ko'rax urug'lari. Oxolibomning otasi Anah edi.

19 Esov, ya'ni Edomdan kelib chiqqan urug'larning hammasi ana shulardir.

Edomning tub aholisi

20-21 Edom yurtining tub aholisi qabilalarga bo'lingan edi. Bu qabilalarning ota–
bobosi Seir degan odam bo'lib, u Xorim xalqidan edi. Seirning quyidagi nasllari
urug'larga asos soldi:

Lo‘ton, Sho‘val, Zibo‘n, Anah, Dishon, Ezer va Dishan.
22 Lo‘tonning o‘g‘illari ismi Xo‘ri va Xo‘mam* edi. Lo‘tonning Timna degan singlisi
ham bor edi.
23 Sho‘valning o‘g‘illari ismi Eliyon*, Monaxat, Ebal, Shafo va O‘nam edi.
24 Zibo‘nning o‘g‘illari ismi Oyo va Anah edi. Anah otasi Zibo‘nning eshaklarini
boqib yurganda, sahroda issiq buloqlar* topgan edi.
25 Anahning Dishon degan o‘g‘li va Oxolibom degan qizi bor edi.
26 Dishonning o‘g‘illari ismi Xamdon, Eshbon, Yitron va Xeron edi.
27 Ezerning o‘g‘illari ismi Bilxan, Zavon va Oqon edi.
28 Dishanning o‘g‘illari ismi Uz va Oron edi.

29 Shunday qilib, quyidagilar Xorim xalqi urug‘larining yo‘lboshchilari bo‘ldi: Lo‘ton,
Sho‘val, Zibo‘n, Anah, 30 Dishon, Ezer va Dishan. Xorim xalqining urug‘lari Seir yurtida
yashagan urug‘ yo‘lboshchilari nomi bilan yuritilgan.

Edom shohlari

31 Hali Isroilda shohlar bo‘lmasdan oldin ham, Edomda shohlar hukmronlik qilgan
edi. Bu shohlar quyidagilardir:

32 Bavo‘r o‘g‘li Belax, u Dinxaba shahridan edi.
33 Belax vafot etgach, uning o‘rniga Zerax o‘g‘li Yo‘vov shoh bo‘ldi. U Bozrax
shahridan edi.
34 Yo‘vov vafot etgandan keyin, uning o‘rniga Xushom shoh bo‘ldi. U Temon
yurtidan edi.
35 Xushom vafot etgach, uning o‘rniga Badad o‘g‘li Hadad shoh bo‘ldi. U Obit
shahridan edi. Hadad Mo‘ab yurtida Midiyon lashkarini qirib tashlagan edi.
36 Hadad vafot etgandan keyin, uning o‘rniga Samlo shoh bo‘ldi. U Masrixo
shahridan edi.
37 Samlo vafot etgandan keyin, uning o‘rniga Shovul shoh bo‘ldi. U Furot daryosi*
bo‘yidagi Rexobo‘t shahridan edi.
38 Shovul vafot etgandan keyin, uning o‘rniga Axbor o‘g‘li Baalxanon shoh bo‘ldi.
39 Baalxanon vafot etgandan keyin, uning o‘rniga Hadad* shoh bo‘ldi. U Pog‘u
shahridan edi. Hadadning xotini Maxitaval edi, Maxitavalning otasi — Matrid,
bobosi Mezaxab edi.

40 Esov urug‘larining yo‘lboshchilari nomlari quyidagichadir: Timno, Elvo, Yetet,
41 Oxolibom, Elox, Pinon, 42 Xanaz, Temon, Mivzar, 43 Maxdiyol va Irom. Edom xalqining
ota–bobosi Esov urug‘larining nomlari ana shulardir. Har bir urug‘ o‘zi egallagan
hududga o‘zining nomini bergan.

37–BOB

Yusuf va uning akalari

1 Is’hoq vafot etgandan keyin, Yoqub yana Kan’on yurtida — otasi yashagan yurtda
o‘rnashdi. 2 Yoqubning xonadoni tarixi quyidagichadir:

Yusuf oʻn yetti yoshga kirganda, koʻpincha oʻgay akalari — Bilxax va Zilponing oʻgʻillari* bilan birga otasining qoʻy–echkilarini boqqani borar edi. Yusuf akalari qilayotgan baʼzi yomon ishlardan otasini xabardor qilib turar edi. 3 Yoqub* Yusufni qarigan chogʻida koʻrgani uchun boshqa oʻgʻillariga qaraganda koʻproq yaxshi koʻrar edi. Yoqub Yusufga beqasam chopon* olib berdi. 4 Akalari koʻrdilarki, otalari Yusufni ulardan ortiq yaxshi koʻrar ekan. Shuning uchun akalari Yusufni yomon koʻrib qoldilar, unga yaxshi gapirmasdilar.

5 Kunlarning birida Yusuf tush koʻrdi. U akalariga tushini aytib berganda, akalari Yusufni battar yomon koʻrib qoldilar. 6 Yusuf akalariga shunday dedi:

— Quloq solinglar, koʻrgan tushimni sizlarga aytib beray. 7 Biz dalada bugʻdoy bogʻlayotgan ekanmiz. Birdan mening bogʻlamim koʻtarilib, tik turdi. Sizlarning bogʻlamlaringiz mening bogʻlamimni oʻrab olib, taʼzim qilayotgan emish.

8 — Eh–ha, sen hali bizning ustimizdan shoh boʻlmoqchimisan, sen–a?! — deb akalari kinoya bilan undan soʻrashdi. Koʻrgan tushini aytib bergani uchun akalari uni yana ham yomon koʻrib qolishgan edi.

9 Keyinroq Yusuf yana tush koʻrdi va tushini akalariga aytib berdi:

— Qaranglar, yana tush koʻribman. Tushimda quyosh, oy va oʻn bitta yulduz menga taʼzim qilib turgan emish.

10 Lekin Yusuf tushini otasi bilan akalariga aytib berganda, otasi unga tanbeh berdi:

— Qanaqa tush koʻrding oʻzi?! Men, onang, akalaring sening oldingga kelib, tiz choʻkishimiz kerak ekan–da?!

11 Akalari Yusufga hasad qilishardi. Lekin otasi bu voqeani doimo esida tutdi.

Yusufni akalari sotib yuborishadi

12 Bir kuni Yusufning akalari otalarining qoʻy–echkilarini boqish uchun Shakamga* ketishdi. 13 Yoqub Yusufga:

— Akalaring Shakamda qoʻy–echkilarni boqishyapti, — dedi. — Seni akalaring oldiga yuborsam, degandim.

— Xoʻp boʻladi, otajon, — dedi Yusuf.

14 — Borib bil–chi, akalaring tinch–omon yurishibdimikan, qoʻy–echkilarning ahvoli yaxshimikan, — dedi Yoqub, — keyin menga xabarini olib kel.

Shunday qilib, Yoqub Yusufni Xevron vodiysidan yoʻlga joʻnatdi.

Yusuf Shakamga yetib keldi. 15 Oʻsha atrofda aylanib yurgan edi, bir odam uni koʻrib qoldi.

— Nimani izlab yuribsan? — deb soʻradi haligi odam.

16 — Akalarimni izlab yuribman, — dedi Yusuf. — Mabodo bilmaysizmi, qoʻy–echkilarni qayerda boqib yurishibdi ekan?

17 — Ular bu yerdan ketishgan, — dedi oʻsha odam. — Akalaring, Doʻtanga* boramiz, deb aytganlarini eshitgan edim.

Yusuf akalarini izlab Doʻtanga ketdi. Ularni oʻsha yerdan topdi. 18 Ular uzoqdan Yusufni koʻrishdi. Yusuf kelmasdan oldin, akalari uni oʻldirish uchun fitna tayyorlab qoʻydilar. 19 Ular bir–birlariga:

— Ana, tush koʻruvchi kelyapti, — deyishdi. 20 — Kelinglar, uni oʻldirib, chuqur sardobaga tashlaymiz. Uni yovvoyi hayvon yeb ketdi, deb gap tarqatamiz. Oʻshanda koʻramiz uning tushlari haqiqatga aylanishini!

21 Lekin Ruben Yusufni ularning qo‘lidan qutqarmoqchi bo‘ldi:
— Uning joniga qasd qilmaylik, 22 — dedi Ruben, — qon to‘kmaylik. Uni anavi sardobaga tiriklayin tashlab yubora qolaylik. Zinhor unga qo‘l tekkizmaylik.
Ruben Yusufni ularning qo‘lidan qutqarib, otasi yoniga qaytarmoqchi edi.
23 Shunday qilib, Yusuf yetib kelgach, akalari uning beqasam choponini yechib oldilar–da, 24 o‘zini sardobaga tashlab yubordilar. Sardoba suv saqlash uchun foydalanilardi–yu, o‘sha paytda quruq edi.
25 Shundan keyin ular ovqatlanib o‘tirishgan edi, uzoqdan shu tomonga kelayotgan tuyalar karvonini ko‘rib qolishdi. Karvon Ismoiliy savdogarlari bo‘lib, tuyalarga Giladdan xushbo‘y ziravorlar, mumiyo, mirra* yuklab, Misrga olib ketishayotgan edi.
26 Shunda Yahudo aka–ukalariga dedi:
— Ukamizni o‘ldirib, qonini yashirganimiz bilan biror foyda toparmidik?! 27 Yaxshisi, anavi savdogarlarga sotaylik. Shunda uning o‘limida javobgar bo‘lib qolmaymiz. Nima bo‘lganda ham, u ukamiz, jigarimiz–ku!
Hamma aka–ukalari rozi bo‘lishdi. 28 Ismoiliy* savdogarlari o‘tib ketishayotganda, Yusufni akalari sardobadan tortib chiqardilar va uni yigirma bo‘lak kumushga* sotdilar. Savdogarlar Yusufni Misrga olib ketdilar.
29 Bir payt Ruben sardoba oldiga qaytib kelib qarasa, sardobada Yusuf yo‘q. Ruben qayg‘udan kiyimlarini yirtdi. 30 U ukalari oldiga qaytib keldi va:
— Bola u yerda yo‘q! Endi nima qilaman–a! — deb yig‘ladi. 31 So‘ng ular bir echkini so‘yib, Yusufning choponini echkining qoniga botirdilar. 32 Ular beqasam choponni otalariga olib keldilar.
— Mana bu choponni daladan topib oldik. Qarang–chi, bu Yusufning choponimikan yoki yo‘qmi?
33 Yoqub Yusufning choponini tanidi.
— Evoh! Bu o‘g‘limning choponi–ku! Yusuf o‘g‘limni birorta yovvoyi hayvon yegan! O‘g‘ilginam tilka–pora bo‘lgan!
34 Yoqub qayg‘udan kiyimlarini yirtib, qanorga o‘randi*. O‘g‘li uchun uzoq vaqt aza tutdi. 35 O‘g‘illari, qizlari unga tasalli berishga harakat qilishardi. Lekin u tasalli topishni istamasdi. “O‘liklar diyoriga*, o‘g‘limning oldiga borgunimcha aza tutaman”, deb aytardi. Shunday qilib, Yoqub o‘g‘liga aza tutaverdi.
36 Shu orada Ismoiliy savdogarlari Yusufni Misrda Po‘tifar degan odamga sotishdi. Po‘tifar Misr shohi — fir’avnning a’yonlaridan biri — saroy qo‘riqchilarining boshlig‘i edi.

38–BOB

Yahudo va Tamara

1 Shu orada Yahudo aka–ukalaridan ajralib, alohida bo‘ldi va Adullam shahriga* ko‘chib keldi. U Xirax degan odamga yaqin joyga o‘rnashdi. Xirax o‘sha yerlik edi.
2 Yahudo bu yerda Kan’on xalqidan bo‘lgan bir qizni uchratib qoldi. Bu qiz Shuvo degan odamning qizi edi. Yahudo o‘sha qizga uylandi. 3 O‘sha ayol homilador bo‘lib, o‘g‘il tug‘di. Yahudo o‘g‘liga G‘ur deb ism qo‘ydi. 4 Yahudoning xotini yana homilador bo‘lib, ikkinchi o‘g‘lini tug‘di. Bu o‘g‘liga O‘nan deb ism qo‘ydi. 5 Yahudoning xotini uchinchi o‘g‘lini tug‘di va unga Shelo deb ism qo‘ydi. Bu o‘g‘li tug‘ilganda, Yahudo Xazib shahrida edi.

6 To‘ng‘ich o‘g‘li G‘ur ulg‘aygach, Yahudo uni Tamara degan qizga uylantirdi. 7 Lekin G‘ur
Egamizning oldida qabihlik qilardi. Oxiri, Egamiz uning jonini oldi. 8 Shundan keyin
Yahudo O‘nanga aytdi:
— Sen akangning xotiniga uylanib, qaynag‘alik burchingni bajar, toki akangga
zurriyot qolsin*.
9 Lekin O‘nan bilardiki, tug‘iladigan bola o‘ziniki hisoblanmasdi. Shu sababdan O‘nan
har safar Tamaraning yoniga kirganda, akamga zurriyot qolmasin* deb, urug‘ini yerga
to‘kardi. 10 O‘nan bu qilmishi bilan Egamizning oldida qabihlik qilayotgan edi. Shuning
uchun Egamiz O‘nanning ham jonini oldi. 11 Shundan keyin Yahudo kelini Tamaraga:
— Otangning uyiga borib turmushga chiqmay, o‘tira tur–chi, o‘g‘lim Shelo ulg‘ayib
qolar, — dedi. Chunki Yahudo: “Shelo ham akalariga o‘xshab o‘lib qolmasin”, deb
qo‘rqqan edi. Shunday qilib, Tamara otasining uyiga qaytib ketdi.
12 Oradan birmuncha vaqt o‘tgach, Yahudoning xotini vafot etdi. Yahudo aza
muddatini tugatgandan keyin, Adullamlik do‘sti Xirax bilan birga qo‘ylarining junini
qirqayotganlardan xabar olgani Timnax shahriga ketdi. 13 Kimdir Tamaraga: “Qaynatang
qo‘ylarining junini qirqayotganlardan xabar olgani Timnaxga ketyapti”, deb aytib qoldi.
14 Tamara egnidagi azadorlik liboslarini o‘zgartirdi. Yuzini ro‘mol bilan berkitib oldi–da,
Enayim shahri darvozasi yonida* o‘tirdi. Bu shahar Timnaxga boradigan yo‘lda edi.
Yahudoning kichik o‘g‘li Shelo voyaga yetganini Tamara bilardi. Lekin haligacha
Tamarani Sheloga olib bermagan edilar. 15 Yahudo Tamarani ko‘rib qoldi. Tamara yuzini
berkitib olgani uchun, Yahudo: “Bu ayol fohisha bo‘lsa kerak”, deb o‘yladi. 16 Yahudo yo‘l
bo‘yida o‘tirgan Tamaraning oldiga keldi. Bu ayol o‘zining kelini ekanini Yahudo
bilmagani uchun unga: “Men bilan birga bo‘lgin”, deb taklif qildi.
— Siz bilan bo‘lsam, evaziga nima berasiz? — deb so‘radi Tamara.
17 — Suruvimdan bir uloqcha yuboraman, — dedi Yahudo.
— Uloqchani yuborguningizcha, menga garovga biron narsa qoldirib ketsangiz, —
dedi Tamara.
18 — Bo‘pti, garovga nima beray? — deb so‘radi Yahudo.
— Bo‘yningizdagi muhringizni bog‘ichi bilan, yana qo‘lingizdagi tayog‘ingizni*, —
dedi Tamara.
Shunday qilib, Yahudo o‘sha narsalarni Tamaraga berdi. Keyin u bilan bo‘ldi. Tamara
Yahudodan homilador bo‘lib qoldi. 19 Tamara uyiga bordi. Yuzidagi yopinchig‘ini olib,
azadorlik liboslarini yana kiyib oldi.
20 Yahudo do‘sti Xiraxdan: “Mana bu uloqchani olib borib o‘sha ayolga ber, men unga
bergan garovni qaytarib ol”, deb iltimos qildi. Lekin Xirax u ayolni topa olmadi. 21 Xirax
shu yerlik odamlardan:
— Mana shu shaharning darvozasi yonida — yo‘l chetida bir fohisha o‘tirar edi, o‘sha
fohisha qayerda? — deb so‘radi.
— Bu yerda hech qanday fohisha* yo‘q, — deb javob berishdi o‘sha odamlar.
22 Xirax Yahudoning oldiga qaytib kelib:
— U ayolni topa olmadim, — dedi, — shahar odamlari ham, bu yerda hech qanday
fohisha yo‘q, deb aytishdi.
23 — Mayli, o‘sha narsalarim u ayolga qolaversin, — dedi. — Men unga uloqcha
jo‘natgandim, sen topa olmading. Aks holda, masxara bo‘lardik.
24 Taxminan uch oydan keyin Yahudo: “Kelining Tamara fohisha ekan, homilador

bo‘lib qolibdi” degan gapni eshitdi.

— Uni shahardan tashqariga olib chiqib yoqib yuboringlar! — deb buyurdi Yahudo.

25 Tamarani olib chiqqanlarida, u qaynatasiga shu xabarni yubordi: “Men mana bu
bog‘ichi bor muhr va tayoqning egasidan homilador bo‘lganman, iltimos, bu
narsalarning egasini aniqlasangiz.” 26 Yahudo bu narsalarni tanib, dedi: “Men
zimmamdagi majburiyatimni bajarmadim — Tamarani o‘g‘lim Sheloga olib bermadim,
Tamara esa to‘g‘ri ish qildi.” Shundan keyin Yahudo Tamara bilan boshqa bo‘lmadi.

27 Tamaraning ko‘zi yoriydigan payt yaqinlashganda, uning qornida egizaklar borligi
ma’lum bo‘ldi. 28 Tamara tug‘ayotganda, egizaklardan biri qo‘lini tashqariga chiqardi.
Doya: “Bunisi birinchi bo‘lib tug‘ildi”, deb chaqaloqning qo‘liga qizil ip bog‘lab qo‘ydi.
29 Lekin chaqaloq qo‘lini ichkariga tortib olishi bilanoq ikkinchisi tug‘ildi. Doya: “Sen
yo‘lingni o‘zing yorib chiqding!” dedi. Shu sababdan unga Paraz* deb ism qo‘yildi.
30 So‘ngra qo‘liga qizil ip bog‘langan chaqaloq tug‘ildi. Unga Zerax* deb ism qo‘yildi.

39–BOB

Yusuf bilan Po‘tifarning xotini

1 Ismoiliy savdogarlari Yusufni Misrga olib kelishgach, uni Misrlik Po‘tifar degan bir
odamga sotishdi. Po‘tifar fir’avnning a’yonlaridan biri bo‘lib, qo‘riqchilar boshlig‘i edi.
2 Egamiz Yusuf bilan birga bo‘lib, unga ko‘p muvaffaqiyat keltirardi. Yusuf Misrlik
xo‘jayinining xonadonida xizmat qilib yuraverdi. 3 Po‘tifar ko‘rdiki, Egamiz Yusuf bilan
birga bo‘lib, har bir qilgan ishida unga muvaffaqiyat keltiryapti. 4 Shunday qilib, Yusuf
xo‘jayinining iltifotiga sazovor bo‘ldi, xo‘jayinining mulozimi bo‘lib qoldi. Po‘tifar
Yusufni o‘z xonadoni ustidan nazoratchi qilib, butun mol–mulkini unga ishonib
topshirdi. 5 Po‘tifar Yusufni nazoratchi qilib tayinlagan kundan boshlab, Egamiz Yusuf
tufayli Po‘tifarning xonadoni ahliga, uning uyidagi va dalasidagi butun mol–mulkiga
baraka beradigan bo‘ldi. 6 Buni ko‘rgan Po‘tifar butun mol–mulkini Yusufning ixtiyoriga
topshirdi. Po‘tifarning yeydigan ovqatidan boshqa hech narsa bilan ishi bo‘lmasdi.

Yusuf juda chiroyli, kelishgan yigit edi. 7 Oradan ma’lum vaqt o‘tgach, xo‘jayinining
xotini Yusufga ko‘zlarini suzib: “Men bilan birga bo‘l”, deb taklif qildi. 8 Lekin Yusuf rad
qildi va xo‘jayinining xotiniga dedi:

— O‘zingiz o‘ylab ko‘ring, men bu yerda bo‘lganim uchun, xo‘jayinim xonadonidagi
hech bir narsa to‘g‘risida qayg‘urmaydi, hamma narsasini mening qo‘limga topshirib
qo‘ydi. 9 Bu xonadonda hech kim mendan katta emas. Sizdan boshqa biror narsani
mendan ayamadi. Chunki siz uning xotinisiz. Qanday qilib men shu qadar qabihlik qilib,
Xudoga qarshi gunoh qilaman?!

10 Po‘tifarning xotini har kuni Yusufga taklif qilsa ham, lekin Yusuf rad qilib, u bilan
bo‘lmadi.

11 Bir kuni Yusuf o‘z ishlarini bajarish uchun uyga kirdi. Uyda xizmatkorlardan
birontasi ham yo‘q edi. 12 Ayol Yusufning kiyimidan ushlab: “Men bilan bo‘l!” dedi. Lekin
Yusuf tashqariga qochib chiqib ketdi. Yusufning kiyimi esa ayolning qo‘lida qoldi. 13 Ayol
ko‘rdiki, Yusuf kiyimini uning qo‘lida qoldirib, tashqariga qochib chiqib ketdi. 14 Shunda
ayol uydagi xizmatkorlarni chaqirdi. Ayol ho‘ngrab dedi:

— Qaranglar! Erim manavi ibroniyni bizni tahqirlash uchun olib kelgan ekan! U men
bilan yotgani kirgan ekan, ovozim boricha baqirdim. 15 Dodlaganimdan keyin, kiyimini

yonimda qoldirib, tashqariga qochib chiqib ketdi.
16 Xo‘jayin uyga kelguncha, ayol Yusufning kiyimini o‘zida saqlab turdi. 17 Ayol eriga
ham o‘sha voqeani aytib berdi: “Siz uyimizga olib kelgan anavi ibroniy qulvachcha
xonamga kirib, meni tahqirlamoqchi bo‘ldi. 18 Men dod solgan edim, u kiyimini yonimda
qoldirib, tashqariga qochib chiqib ketdi.”
19 Po‘tifar buni eshitgach, g‘azablandi. 20 U Yusufni ushlab, shohning mahbuslari
saqlanadigan zindonga tashladi. Shunday qilib, Yusuf zindonda qolaverdi. 21 Lekin
Egamiz Yusuf bilan birga bo‘lib, unga marhamat ko‘rsatardi. Natijada zindonboshi
Yusufga iltifot qilardi. 22 Zindonboshi zindondagi hamma mahbuslarga qarab turishni
Yusufga yuklab qo‘ydi, zindonda bo‘ladigan hamma ishlarga Yusuf mas’ul edi. 23 Egamiz
Yusuf bilan birga bo‘lib, uning hamma ishlarida muvaffaqiyat keltirardi. Shuning uchun
Yusuf mas’ul bo‘lgan ishlarga zindonboshi aralashmasdi.

40–BOB

Yusuf mahbuslarning tushini ta’bir qiladi

1 Bir kuni saroy soqiysi* bilan novvoyi Misr fir’avnini qattiq xafa qildilar. 2 Fir’avn bu
ikkala a’yonidan — soqiysi bilan novvoyidan g‘azablanib, 3 ularni ham Yusuf yotgan
zindonga qamatib qo‘ydi. Zindon qo‘riqchilar boshlig‘ining uyida edi. 4 Qo‘riqchilar
boshlig‘i Yusufni soqiy bilan novvoyning xizmatiga qo‘ydi. Yusuf ularga xizmat qila
boshladi. Ular ancha vaqt zindonda qoldilar.
5 Fir’avnning soqiysi bilan novvoyi zindonda yotar ekanlar, bir kuni kechasi ikkovi
ham tush ko‘rdilar. Har bir tushning o‘ziga xos ma’nosi bor edi. 6 Ertalab Yusuf ularning
yoniga keldi. Ularning yuzi g‘amgin edi. Yusuf buni payqadi.
7 — Nimaga bugun juda g‘amgin ko‘rinasizlar? — deb so‘radi Yusuf ulardan.
8 — Biz tush ko‘rgan edik, bu yerda tushimizni ta’birlab beradigan biron kimsa yo‘q,
— deb javob berishdi ular.
— Tushlarni ta’birlash Xudodandir, — dedi Yusuf. — Marhamat, tushingizni menga
ayting–chi.
9 Avval soqiy tushini Yusufga aytib berdi:
— Tushimda tok ko‘ribman. Tok oldimda turgan emish. 10 Tokning uchta novdasi bor
ekan. Novdalar darrov kurtak otib, meva tugib uzumlar pishibdi. 11 Fir’avnning qadahi
qo‘limda emish. Men uzumlarni olib, fir’avnning qadahiga uzumning sharbatini
siqibman. Keyin qadahni fir’avnning qo‘liga beribman.
12 Yusuf unga dedi:
— Tushingizning ta’biri shunday bo‘lar: uchta novda — uch kun degani. 13 Uch kun
ichida fir’avn sizni zindondan ozod qilib, oldingi mansabingizga qaytaradi: siz yana
soqiy bo‘lib, ilgarigiday shohga qadah tutasiz. 14 Lekin sizdan bir iltimos: ishlaringiz
yaxshi bo‘lib ketganda, meni ham eslab qo‘ying. Siz menga iltifot ko‘rsatib, fir’avnga men
to‘g‘rimda ham eslatib qo‘ying: meni zindondan chiqarib olsin. 15 Men aslida ibroniylar
yurtidan o‘g‘irlab keltirilganman. Buning ustiga, yana bu yerda zindondaman, lekin hech
qanday aybim yo‘q.
16 Novvoy qarasa, tushning ta’biri yaxshilikka ekan. U Yusufga dedi:
— Men ham tush ko‘ribman. Boshimda uchta non savatni olib ketayotgan emishman.
17 Eng tepadagi savatda fir’avnga atalgan pishiriqlarning har turidan bor ekan. Lekin

qushlar uchib kelib, boshimdagi savatdan pishiriqlarni cho‘qiyotgan ekan.
18 — Tushingizning ta’biri shunday bo‘lar, — dedi Yusuf. — Uchta savat — uch kun
degani. 19 Uch kun ichida fir’avn boshingizni tanangizdan judo qilib, tanangizni tik
o‘rnatilgan xodaning uchiga qoqtiradi. Qushlar tanangizni cho‘qib yeydi.
20 Oradan uch kun o‘tgach, fir’avn tug‘ilgan kunida barcha a’yonlariga ziyofat berdi.
Soqiysi bilan novvoyini ham zindondan a’yonlari oldiga chaqirtirdi. 21 Fir’avn soqiysini
ozod qilib, oldingi mansabiga qaytardi. Shunday qilib, soqiy yana fir’avnga qadah
tutadigan bo‘ldi. 22 Lekin Yusuf aytganday, fir’avn novvoyning boshini oldirib, jasadini
tik o‘rnatilgan xodaning uchiga qoqtirdi. 23 Soqiy esa Yusufni eslamadi, uni unutib
yubordi.

41–BOB

Yusuf fir’avnning tushini ta’bir qiladi

1 Oradan ikki yil o‘tdi. Bir kuni Misr fir’avni tush ko‘rdi. Tushida u Nil daryosi bo‘yida
turgan emish. 2 Bir payt daryodan yettita boqilgan, semiz sigir chiqib, qirg‘oqdagi
o‘tlarni yeya boshlabdi. 3 So‘ngra daryodan yana yettita sigir chiqibdi. Bu sigirlar juda
ham xunuk, oriq ekan. Bular semiz sigirlarning yoniga kelib turibdi. 4 Bir vaqt oriq
sigirlar semiz sigirlarni yeb qo‘yibdi! Shundan keyin fir’avn uyg‘onib ketdi. 5 So‘ngra u
yana uxlab qoldi va boshqa tush ko‘rdi. Tushida bitta bug‘doy poyasida yettita to‘liq,
pishgan boshoq o‘sgan emish. 6 Keyin o‘sha poyada yana yettita boshoq o‘sib chiqibdi.
Bu boshoqlar sahro shamolida qovjirab, puchayib ketgan ekan. 7 Birdan puchaygan
boshoqlar yettita pishgan, to‘liq boshoqni yutib yuboribdi!
Fir’avn yana uyg‘onib ketdi. Bu tushi ekan.
8 Fir’avn saharda ko‘rgan tushini o‘ylab, ko‘ngli juda g‘ash bo‘ldi. “Tushim nimadan
darak berar ekan”, deb juda xavotirlandi. Shu boisdan Misrdagi jamiki sehrgarlarni va
donishmandlarni chaqirtirdi. Fir’avn ularga ko‘rgan tushini aytib berdi. Lekin ularning
birontasi fir’avnning tushini ta’bir qilib bera olmadi.
9 Shu orada fir’avnning soqiysi* so‘z oldi:
— Bugun ayblarimni e’tirof etishimga to‘g‘ri keladi. 10 Janobi oliylari! Siz birmuncha
vaqt oldin novvoy bilan mendan g‘azablanib, bizni qo‘riqchilar boshlig‘ining uyidagi
zindonga tashlagan edingiz. 11 Novvoy bilan men bir kuni kechasi tush ko‘ribmiz.
Tushlarimizning o‘ziga xos ma’nosi bor edi. 12 Biz bilan zindonda bir ibroniy yigit ham
yotgan edi. U qo‘riqchilar boshlig‘ining xizmatkori edi. Biz o‘sha ibroniy yigitga
tushimizni aytganimizda, har birimizning tushimizni ta’bir qilib berdi. 13 Hammasi o‘sha
ibroniy yigit aytganday bo‘ldi. Men oldingi mansabimga qaytdim, novvoyni esa tik
o‘rnatilgan xodaga qoqishdi.
14 Fir’avn Yusufga odam yubordi. Yusuf zudlik bilan zindondan chiqarildi. U soqolini
olib, kiyimlarini o‘zgartirdi–da, fir’avnning huzuriga keldi.
15 — O‘tgan kechasi men tush ko‘rdim, — deb gap boshladi fir’avn Yusufga. — Lekin
hech kim tushimni ta’bir qilib bera olmadi. Eshitishimcha, sen tushlarni ta’birlay olar
ekansan. Shu sababdan seni chaqirtirgan edim.
16 — Janobi oliylari, men o‘zim tushingizni ta’birlay olmayman, — deb javob berdi
Yusuf. — To‘g‘ri javobni sizga Xudo beradi.
17 Shundan keyin fir’avn Yusufga tushini aytdi:

— Tushimda Nil daryosi bo‘yida turgan emishman. 18 Bir payt daryodan yettita
boqilgan, semiz sigir chiqib, qirg‘oqdagi o‘tlarni yeya boshlabdi. 19 So‘ngra daryodan
yana yettita sigir chiqibdi. Bu sigirlar juda ham xunuk, oriq ekan. Bunaqangi xunuk
sigirni butun Misr yurtida ko‘rmagan edim. 20 Bir vaqt oriq, xunuk sigirlar daryodan
oldin chiqqan semiz sigirlarni yeb qo‘yibdi. 21 Xunuk sigirlar semiz sigirlarni yegandan
keyin ham, ular hech narsa yemaganday xunukligicha qolaverdilar. Shundan keyin
uyg‘onib ketibman. 22 So‘ngra yana uxlab qolib, boshqa tush ko‘ribman. Tushimda bitta
bug‘doy poyasida yettita to‘liq, pishgan boshoq o‘sgan emish. 23 Keyin o‘sha poyada yana
yettita boshoq o‘sib chiqibdi. Bu boshoqlar sahro shamolida so‘lib, qovjirab, puchayib
ketgan ekan. 24 Birdan puchaygan boshoqlar yettita pishgan, to‘liq boshoqni yutib
yuboribdi! Men tushimni sehrgarlarimga aytgan edim, lekin birontasi ham ma’nosini
aytib bera olmadi.

25 — Fir’avn janobi oliylarining ikkala tushining ma’nosi ham birdir, — dedi Yusuf
fir’avnga. — Xudo nima qilmoqchi ekanini fir’avnimizga ayon etibdi. 26 Yettita semiz
sigir va yettita to‘liq boshoq yetti yil deganidir, bularning ma’nosi birdir. Shu yillari
farovonlik bo‘ladi. 27 Yettita ozg‘in, xunuk sigir bilan yettita puchaygan boshoq ham yetti
yil deganidir. Shu yillari qahatchilik bo‘ladi. 28 Fir’avn janoblari! Aytganimday, Xudo
nima qilmoqchi ekanini sizga ko‘rsatibdi. 29 Butun Misr yurtida yetti yil davomida hosil
nihoyatda mo‘l bo‘ladi. 30 Lekin shundan keyin yetti yil davomida shunday dahshatli
qahatchilik bo‘ladiki, Misrda oldingi farovonlik yillari unutilib ketadi. Qahatchilik yurtni
xarob qiladi. 31 Qahatchilik nihoyatda og‘ir bo‘lganidan, odamlar xotirasidan farovonlik
davri tamomila o‘chib ketadi. 32 Fir’avn janoblari ikki marta tush ko‘rganlarining
ma’nosi shuki, bu ish muqarrar yuz berishini Xudo ta’kidlayapti, Xudo buni yaqin orada
amalga oshiradi. 33 Shuning uchun, fir’avn janoblari, siz aql–idrokli, dono bir odamni
tanlab olib, Misr yurti ustidan tayinlang. 34 Yana yurt ustidan nazoratchilar tayin qiling.
O‘sha nazoratchilar hosildor yetti yil davomida Misr yurtidagi butun hosilning beshdan
bir qismini olsinlar. 35 Ularga farmon bering: farovonlik yillari davomida ular don
g‘amlashsin, sizning nazoratingiz ostida shaharlarda don yig‘ib, qo‘riqlashsin. 36 Shu yo‘l
bilan yetti yil qahatchilik davrida oziq–ovqat bo‘lishi uchun don g‘amlanib turadi. Aks
holda, qahatchilik, shubhasiz, yurtni xarob qiladi, butun xalq halok bo‘ladi.

Yusuf Misr hokimi bo‘ladi

37 Yusufning maslahati fir’avnga ham, uning barcha a’yonlariga ham juda ma’qul
keldi. 38 Fir’avn a’yonlariga: “Biz Yusufdan boshqa Xudoning Ruhi boshqaradigan birorta
odamni topa olarmidik”, deb aytdi. 39 Shu boisdan Yusufga:

— Xudo bularning hammasini senga ayon qilgan ekan, bu yurtda eng aql–idrokli,
dono odam sensan, — dedi. 40 — Men seni o‘zimga vazir qilib tayinlayman, butun xalqim
sening buyrug‘ingga itoat etadi. Men sendan faqat taxtim bilan ustunman, xolos.

41 Fir’avn yana Yusufga:

— Mana, seni butun Misr yurti ustidan hokim qilib tayinladim, — dedi. 42 So‘ng
fir’avn o‘zining muhr uzugini barmog‘idan chiqarib, Yusufning barmog‘iga taqib qo‘ydi.
U Yusufga shohona liboslar kiydirib, bo‘yniga oltin zanjir taqib qo‘ydi. 43 Fir’avn Yusufga
o‘ng qo‘l vazir sifatida izvoshini ham taqdim qildi. Yusuf qayerga bormasin, odamlarga:
“Tiz cho‘kinglar!” degan buyruq berilardi. Shunday qilib, fir’avn Yusufni butun Misr yurti
ustidan hokim qildi. 44 Fir’avn Yusufga yana shunday dedi:

— Fir’avn men bo‘lsam ham, butun Misr yurtida biron kimsa sening ijozatingsiz hatto miq etolmaydi.

45 Fir’avn Yusufga Zofnat–Paniyox deb ism qo‘ydi va On shahri* ruhoniysi Po‘tiferoning qizi Osanatni olib berdi. Shunday qilib, Yusuf butun Misr yurtida hokim bo‘lib qoldi.

46 Yusuf Misr fir’avni xizmatiga kirgan paytda, o‘ttiz yoshda edi. Yusuf fir’avn saroyidan chiqib, butun Misr yurtini kezib chiqardi. 47 Yetti yil farovonlik davrida yer mo‘l–ko‘l hosil berdi. 48 Shu yillar davomida Yusuf Misrda yetishtirilgan hosildan bir qismini olib, shaharlarda don g‘amladi. Xususan, har bir shahar atrofidagi dalalardan o‘sha shaharga don yig‘ilardi. 49 Yusuf shunchalik ko‘p don g‘amladiki, dengizdagi qumdek ko‘p edi. Shuning uchun donni o‘lchamay qo‘ydi. Don behisob darajada ko‘p edi.

50 Qahatchilik yillari boshlanishidan oldin, Yusufga xotini Osanat ikki o‘g‘il tug‘ib berdi. 51 Yusuf: “Qayg‘ularimni va otam xonadonini Xudo esimdan chiqardi”, deb to‘ng‘ich o‘g‘lining ismini Manashe* qo‘ydi. 52 Ikkinchi o‘g‘lining ismini Efrayim* qo‘ydi. “Chunki, — dedi Yusuf, — men azob–uqubat tortgan yurtda Xudo meni barakali qildi.”

53 Nihoyat, hosildor yetti yil ham tugadi. 54 Yusuf ta’bir qilganday, yetti yillik qahatchilik boshlandi. Atrofdagi hamma yurtlarda don tanqis bo‘lib, Misr yurtidagina non bor edi. 55 Oxiri, Misr yurtida ham ocharchilik boshlandi. Misr xalqi non so‘rab fir’avnga yolvordi. Fir’avn esa xalqqa: “Yusufga boringlar, u nima desa, shuni qilinglar”, dedi. 56 Qahatchilik kuchayib, butun yurtga yoyilgach, Yusuf hamma omborxonalarning eshiklarini ochib, Misrliklarga don sota boshladi. 57 Butun dunyo bo‘ylab qahatchilik kuchayib borar, shuning uchun atrofdagi yurtlarning xalqlari Yusufdan don sotib olgani Misrga kelishardi.

42–BOB

Yusufning akalari don sotib olgani Misrga kelishadi

1 Yoqub: “Misrda don bor ekan”, deb eshitgach, o‘g‘illariga dedi:

— Bir–birlaringizga termulib o‘tiraverasizlarmi? 2 Misrda don bor ekan, deb eshitdim. Boringlar, o‘zimizga don sotib olib kelinglar, tag‘in ochlikdan o‘lib ketmaylik.

3 Shunday qilib, Yusufning o‘nta akasi ham don sotib olgani Misrga ketishdi. 4 Lekin Yoqub Yusufning ukasi Benyaminni o‘g‘illari bilan birga yubormadi. “Benyamin ham biror falokatga yo‘liqmasin”, deb qo‘rqardi. 5 Shunday qilib, Yoqubning* o‘g‘illari don sotib olgani kelgan boshqa odamlar bilan birga Misrga kelishdi. Chunki Kan’on yurtida ham ocharchilik boshlangan edi.

6 Yusuf bu paytda butun Misr ustidan hokim bo‘lgani uchun yurt xalqiga don sotar edi. Yusufning akalari kelib, boshlari yerga tekkuday bo‘lib, unga ta’zim qilishdi. 7 Yusuf akalarini ko‘riboq, darrov tanidi. Lekin Yusuf ularga xuddi notanishlarday muomala qildi:

— Qayerdan keldingiz? — deb dag‘allik bilan so‘radi Yusuf ulardan.

— Kan’on yurtidan, don sotib olgani keldik, — deb javob berishdi ular.

8 Yusuf akalarini tanigan bo‘lsa ham, akalari Yusufni tanimadilar. 9 Yusuf akalari to‘g‘risida ancha yillar oldin ko‘rgan tushlarini esladi. Yusuf ularga:

— Sizlar josussizlar! — dedi. — Sizlar bu yurtning zaif tomonlarini bilish uchun kelgansizlar.

10 — Yo‘q, hazrati oliylari! Bu qullaringiz faqat don sotib olgani kelishgan! — deb
javob berdilar akalari. 11 — Biz hammamiz bir odamning farzandlarimiz, to‘g‘ri
odamlarmiz. Bu qullaringiz hech qachon josuslik qilishmagan!
12 — Yo‘q! Sizlar bu yurtning zaif tomonlarini bilish uchun kelgansizlar! — dedi
Yusuf.
13 — Biz, qullaringiz, o‘n ikki aka–ukamiz, otamiz Kan’on yurtida, — deyishdi ular. —
Eng kichik ukamiz u yerda otamiz bilan qoldi. Bitta ukamiz esa nobud bo‘lgan.
14 — Sizlar josussizlar dedimmi, josussizlar! — deya gapida turib oldi Yusuf. 15 —
Endi aytganlaringizni tekshirib ko‘raman. Fir’avnning nomini o‘rtaga qo‘yib qasam
ichamanki, agar eng kichik ukangiz bu yerga kelmasa, sizlar Misrdan ketmaysizlar.
16 Sizlardan bittangiz borib, ukangizni olib kelasiz, qolganlaringiz zindonda yotib
turasizlar. Aytganlaringiz to‘g‘rimi, yo‘qmi, tekshiriladi. Agar to‘g‘ri bo‘lmasa, fir’avnning
nomini o‘rtaga qo‘yib qasam ichamanki, sizlar, shubhasiz, josus bo‘lib chiqasizlar.
17 Yusuf ularning hammasini uch kun zindonga qamab qo‘ydi.
18 Uchinchi kuni Yusuf ularga dedi:
— Men Xudodan qo‘rqadigan odamman. Agar mening aytganlarimni qilsangiz, tirik
qolasizlar. 19 Agar to‘g‘ri odamlar bo‘lsangizlar, bittangiz zindonda qolasiz,
qolganlaringiz esa och qolgan oilalaringiz uchun don olib, uylaringizga ketishlaringiz
mumkin. 20 Kichik ukangizni mening oldimga olib kelasizlar. Shu yo‘l bilan sizlarning
so‘zlaringizni tekshirib ko‘raman. Gaplaringiz to‘g‘ri bo‘lsa, sizlarga shafqat qilaman.
Hammalari bu gapga rozi bo‘lishdi. 21 Ular bir–birlariga gapira boshladilar: “Mana,
ukamizga nima qilgan bo‘lsak, endi jazosini tortyapmiz. U qanchalar azoblanganini
ko‘zimiz bilan ko‘rib, yolvorishlarini eshitganimizda ham, quloq solmagan edik. Shu
sababdan bu azoblar o‘zimizning boshimizga ham keldi.” 22 Shunda Ruben ularga dedi:
— Bolaga zarar yetkazmanglar, deb aytmaganmidim?! Lekin sizlar gapimga quloq
solmadingiz. Mana endi uning qoni bizni tutadi.
23 Yusuf shu yerda turgan edi. Akalari: “Gapimizni mana bu odam tushunadi” deb
xayollariga ham keltirmasdilar. Chunki Yusuf akalari bilan tilmoch orqali gaplashardi.
24 Yusuf akalarining oldidan ketib, yig‘ladi. Bir oz o‘zini bosib olgach, qaytib kelib, ular
bilan gaplashdi. So‘ng ularning orasidan Shimo‘nni ajratib oldi va ularning ko‘zi oldida
bog‘latdi.

Yusufning akalari Kan’onga qaytishadi

25 Shundan keyin Yusuf xizmatkorlariga shunday buyruq berdi: “Bu odamlarning
qoplarini donga to‘ldirib beringlar. Har birining kumushlarini* qopiga qaytarib solib
qo‘yinglar, ularga yo‘l uchun kerakli oziq–ovqat beringlar.” Hammasi Yusuf
buyurganday bo‘ldi. 26 Aka–ukalar donlarni eshaklariga yuklab, yo‘lga tushdilar.
27 Kechasi bir joyda tunagani to‘xtadilar. Ulardan biri qopini ochib, eshagiga yem
olmoqchi bo‘lgan edi, qarasa, qop ichida kumushlari turibdi! 28 U aka–ukalariga: “Voy,
qaranglar! Mana kumushlarim! Qopimning ichida ekan!” deb hayratlandi. Shunda
ularning yuraklari qinidan chiqquday bo‘lib qaltirab, bir–birlariga: “Endi Xudo
boshimizga nima solyapti ekan–a?!” der edilar.
29 Ular Kan’on yurtiga — otalari huzuriga qaytib kelganlaridan keyin, boshlaridan
o‘tgan hamma voqealarni unga aytib berdilar:
30 — O‘sha yurtning hokimi biz bilan juda qo‘pol gaplashdi, bizni, josussizlar, dedi.

31 Lekin biz to‘g‘ri odam ekanimizni, josus emasligimizni aytdik. 32 Unga: “Biz o‘n ikki
aka–ukamiz, bitta otaning farzandlarimiz, bitta ukamiz nobud bo‘lgan, eng kichik
ukamiz otamiz bilan Kan’onda qolgan”, deb aytdik. 33 Keyin o‘sha yurtning hokimi bizga
aytdi: “Sizlar to‘g‘ri odamlar ekaningizni tekshirib ko‘raman. Bittangiz men bilan
qolasiz, boshqalaringiz esa och qolgan oilalaringiz uchun don olib ketaverasizlar. 34 Eng
kichik ukangizni mening oldimga olib kelasizlar. Ana shunda sizlar josus emas, balki
to‘g‘ri odam ekaningizni bilib olaman. So‘ngra mana bu tug‘ishganingizni sizlar bilan
birga jo‘natib yuboraman. Sizlar don sotib olgani tez–tez kelib turaverasizlar*.”
35 Ular qoplarini bo‘shatayotganlarida, qarasalar, hammasining qopi ichida
tugunchada kumushlari turibdi. Ota–bolalar tugunchalardagi kumushlarni
ko‘rganlarida, vahimaga tushdilar. 36 Shunda Yoqub o‘g‘illariga aytdi:
— Meni hamma bolalarimdan judo qilmoqchimisizlar? Yusuf yo‘qoldi, Shimo‘n ham
yo‘q, endi esa Benyaminni olib ketmoqchisizlar! Peshanam buncha sho‘r bo‘lmasa!
37 Ruben otasiga dedi:
— Agar Benyaminni sizga qaytarib olib kelmasam, mayli, mening ikkala o‘g‘limni
o‘ldiravering! Benyaminni menga ishonib topshiring, o‘zingizga qaytarib olib kelib
beraman.
38 — O‘g‘lim sizlar bilan birga bormaydi, — dedi Yoqub. — Akasi Yusuf o‘lgan, o‘zi
yolg‘iz qoldi*. Yo‘lda u biror falokatga yo‘liqishi mumkin. Qariganimda meni qayg‘udan
o‘liklar diyoriga* kiritasizlar.

43–BOB

Yusufning akalari Benyaminni Misrga olib kelishadi

1 Kan’on yurtida qahatchilik haddan ortiq kuchaydi. 2 Yoqubning o‘g‘illari Misrdan
olib kelgan donni yeb tugatishdi. Shundan keyin Yoqub o‘g‘illariga:
— Yana borib, bir oz don sotib olib kelinglar, — dedi.
3 Yahudo otasiga shunday dedi:
— O‘sha odam, ukangizni olib kelmagunlaringizcha, ko‘zimga ko‘rinmanglar, deb
bizni ogohlantirgan. 4 Agar ukamizni biz bilan birga jo‘natsangiz, borib, sizga don sotib
olib kelardik. 5 Lekin Benyaminni yubormasangiz, biz ham bormaymiz. Chunki o‘sha
odam, ukangizni olib kelmasangiz, ko‘zimga ko‘rinmanglar, deb aytgan.
6 Yoqub*:
— Nimaga o‘sha odamga, yana ukamiz bor, deb boshimga balo orttirdingiz?! — deb
zorlandi.
7 Ular shunday javob berdilar:
— U odam: “Otangiz hayotmi? Boshqa ukangiz ham bormi?” deb o‘zimiz, oilamiz
to‘g‘risida so‘rab–surishtirdi. Biz uning savollariga javob berdik. “Ukangizni mening
oldimga olib kelinglar”, deb aytishini qayerdan bilibmiz?!
8 Yahudo otasiga dedi:
— Ukamizni men bilan jo‘nating, endi yo‘lga chiqaylik, toki sizu biz, bolalarimiz
ochlikdan o‘lmay, tirik qolaylik. 9 Unga men o‘zim kafil bo‘laman, u uchun meni mas’ul
deb bilavering. Agar uni qaytarib olib kelib qo‘lingizga topshirmasam, umr bo‘yi sizning
oldingizda aybdor bo‘lib qolay. 10 Agar orqaga surmaganimizda edi, hozirgacha ikki
marta borib kelgan bo‘lardik.

11 Nihoyat, Yoqub oʻgʻillariga dedi:
— Boshqa iloji yoʻq ekan, endi bunday qilinglar: yurtimizning noz–neʼmatlaridan qoplaringizga solinglar. Bir oz mumiyo, asal, xushboʻy ziravorlar, mirra*, pista, bodom ham olib, oʻsha odamga hadya qilib olib boringlar. 12 Oʻtgan safar qoplaringizga kumushlarni solib qaytarib yuborishgan edi, shuning uchun kumushni ikki barobar koʻp olinglar. Kimdir adashgan boʻlishi mumkin. 13 Ukangizni ham olinglar–u, hoziroq oʻsha odamning oldiga joʻnanglar. 14 Oʻsha odam bolalarimga rahm qilsin, deb Qodir Xudoga iltijo qilaman, toki u Shimoʻn bilan Benyaminni qaytarib yuborsin. Agarda farzandlarimdan judo boʻladigan boʻlsam, mayli, boʻla qolay.
15 Shunday qilib, ular har xil hadyalar, ikki barobar koʻp kumush oldilar–da, Benyaminni ham ergashtirib, Misrga shoshildilar. Misrga yetib kelib, Yusufning huzuriga kirdilar.
16 Yusuf ularning yonida Benyaminni ham koʻrdi va qulboshisiga buyurdi: “Bu odamlarni uyga olib bor, bironta jonliq soʻyib, tayyorgarlik koʻr. Ular tushlikni men bilan birga yeydilar.” 17 Qulboshi Yusuf aytganday qildi: aka–ukalarni Yusufning uyiga olib ketdi. 18 Qulboshi aka–ukalarni Yusufning uyiga olib kelgani uchun, ular juda qoʻrqib ketishdi. Ular bir–biriga dedilar: “Oʻtgan safar qoplarimizga kumushlarimizni qaytarib solib qoʻyishgan edi. Shu sababdan qulboshi bizni bu yerga olib kelgan. Endi u bizni oʻgʻrilikda ayblaydi. Bizni ushlab, qul qilib oladi, eshaklarimizni ham tortib oladi.”
19 Yusufning darvozasi oldida aka–ukalar qulboshiga aytdilar:
20 — Kechirasiz, hazrat, biz oʻtgan safar ham don sotib olgani kelgan edik. 21 Uyga qaytib ketayotganimizda, tunda dam olgani bir joyda toʻxtab, qoplarimizni ochdik. Don sotib olganimizda toʻlagan kumushimizning hammasi qoplarimizning ichida ekan. Mana, oʻsha kumushlarni qaytarib olib keldik. 22 Biz yana don sotib olgani qoʻshimcha kumush olib keldik. Kim u kumushlarni qoplarimizga solib qoʻygan ekan, bilmaymiz.
23 — Xotirjam boʻlinglar, — dedi Yusufning qulboshisi, — bu toʻgʻrida xavotir olmanglar. Don sotib olishga keltirgan kumushlaringizning hammasini men olgan edim. Xudoyingiz — otangizning Xudosi qoplaringizga xazina solib qoʻygan boʻlsa kerak.
Soʻng qulboshi Shimoʻnni ularning oldiga olib keldi. 24 Qulboshi aka–ukalarni Yusufning uyiga olib kelgandan keyin, ularga suv berdi. Aka–ukalar oyoqlarini yuvib olishdi. Qulboshi ularning eshaklariga ham yem berdi. 25 Aka–ukalarga, Yusuf hazrati oliylari bilan birga tushlik qilasizlar, deb aytishdi. Shuning uchun Yusuf kelguncha, ular hadyalarini tayyorlab qoʻydilar.
26 Yusuf uyga kelgach, ular hadyalarini Yusufga berib, muk tushib taʼzim qilishdi. 27 Yusuf ulardan hol–ahvol soʻradi.
— Otangizning ahvollari qalay? Keksa otamiz bor, deb aytgan edingiz. U hozir ham hayotmi?
28 — Qulingiz — otamiz yaxshi yuribdilar, hozir hayotlar, — deb javob berishdi aka–ukalar. Soʻng ular Yusufga egilib taʼzim qilishdi. 29 Yusuf tugʻishgan ukasi Benyaminni koʻrib, ulardan soʻradi:
— Kenja ukamiz bor, deb aytgan edingiz. Shu bola ukangizmi? Xudo senga marhamat qilsin, oʻgʻlim!
30 Yusuf shunday deb, ukasiga mehri tovlanib ketganidan yigʻlab yuboray derdi. Shuning uchun Yusuf darrov ichkari xonaga chiqdi–yu, u yerda yigʻlab yubordi. 31 Bir ozdan keyin Yusuf yuzini yuvib, oʻzini qoʻlga oldi va aka–ukalarining oldiga qaytib kirdi.

“Taomlar keltirilsin!” deb buyruq berdi. 32 Yusufga alohida dasturxonda, aka–ukalariga
esa boshqa dasturxonda taomlar tortildi. Yusufnikidagi Misrliklar esa alohida
dasturxonda taom yeyishdi. Misrliklar ibroniylar bilan dasturxon atrofida birga o‘tirib
ovqat yeyishdan hazar qilishar edi. 33 Yusuf har bir akasiga qaysi joyda o‘tirishini
ko‘rsatdi. Har birini yoshi bo‘yicha, katta–kichikligiga qarab o‘tqazdi. Aka–ukalar bir–
birlariga taajjub bilan qarab qo‘ydilar. 34 Aka–ukalarga taomlarni Yusufning
dasturxonidan tarqatishdi. Benyaminga berilgan taom boshqa akalarinikiga qaraganda
besh hissa ko‘p edi. Aka–ukalar taomni yeb, Yusuf bilan birga may ichib, xushnud
bo‘ldilar.

44–BOB

Yo‘qolgan qadah

1 Aka–ukalar ketishga tayyorlanishdi. Yusuf qulboshisiga shunday ko‘rsatma berdi:
“Bu odamlarning qoplarini ko‘tara oladigan qilib donga to‘ldir. Har birining qopiga
kumushlarini qaytarib solib qo‘y. 2 Kenjasining qopi ichiga esa kumushlari bilan birga
mening kumush qadahimni ham solib qo‘y.” Qulboshi hammasini Yusuf aytganday qildi.
3 Ertasiga tong yorishishi bilanoq, aka–ukalarni yuk ortilgan eshaklari bilan jo‘natib
yuborishdi. 4 Ular hali shahardan uncha uzoqlashmagan ham edilarki, Yusuf
qulboshisiga buyurdi:

— Bor, anavi odamlarning izidan tush. Ularga yetib olganingdan keyin shunday deb
ayt: “Nimaga yaxshilikka yomonlik qildingiz? 5 Xo‘jayinimning kumush qadahini
o‘g‘irlaganingiz nimasi?* Xo‘jayinim undan ichimlik ichish uchun, fol ochish uchun
foydalanardi*, axir! Qanday yomon ish qilib qo‘yibsizlar–a!”

6 Qulboshi aka–ukalarga yetib olib, o‘rgatilgan gaplarni aytdi.

7 — Nimaga bunday gaplarni gapiryapsiz?! — deb javob qaytarishdi ular. — Xudo
saqlasin! Bu qullaringiz unaqa ish qilmaydi! 8 O‘zingiz o‘ylang, qoplarimizdan topib
olgan kumushlarni Kan’ondan sizga qaytarib olib keldik–ku. Shunday ekan, biz
xo‘jayiningizning uyidan kumush yoki oltin o‘g‘irlarmidik?! 9 Agar o‘sha narsa biz,
qullaringizdan topilsa, mayli, o‘sha odam o‘ldirilsin. Qolganlarimiz hazrati oliylariga qul
bo‘laylik.

10 — Mayli, men roziman, sizlar aytgancha bo‘la qolsin, — dedi qulboshi. — Kumush
qadah kimdan topilsa, u menga qul bo‘ladi. Qolganlaringiz esa ozod bo‘lasizlar.

11 So‘ngra har biri tezda eshaklari ustidan qoplarini olib, ochdilar. 12 Yusufning
qulboshisi to‘ng‘ichining qopidan boshlab kenjasining qopigacha titib chiqdi. Qadah
Benyaminning qopidan chiqib qolsa bo‘ladimi! 13 Ular umidsizlikka tushib, qayg‘udan
kiyimlarini yirtdilar. Eshaklariga yana yuklarini ortib, orqaga — shaharga qaytib
keldilar.

14 Yahudo va aka–ukalar Yusufning uyiga kelishdi. Yusuf hali uyida ekan. Aka–ukalar
Yusufning oldida o‘zlarini yerga otdilar.

15 — Bu qilganingiz nimasi? — deb so‘roqqa tutdi Yusuf ularni. — Menday bir odam
fol ochib bilib olishimni bilmasmidingiz?!

16 — Janobi oliylariga nima ham derdik? Xudo bu qullaringizning qilgan jinoyatlarini
fosh qildi. Endi o‘zimizni qanday himoya qila olardik?! Qanday qilib o‘zimizni oqlardik?!
Janobi oliylari! Sizning qadahingiz ukamizning qopidan topilgan ekan, endi ukamiz bilan

birga biz, hammamiz, sizga qul bo‘lishga tayyormiz.

17 — Yo‘q, Xudo saqlasin! Hecham bunday qilmayman! — dedi Yusuf. — Faqat qadahni o‘g‘irlagan odamgina menga qul bo‘ladi. Qolganlaringiz esa eson–omon otangizning oldiga qaytinglar.

Yahudo Benyamin uchun yolvoradi

18 Shunda Yahudo Yusufga yaqinroq kelib dedi:

— Janobi oliylari! O‘zingiz fir’avn kabisiz. Siz, janoblariga men bir og‘iz so‘z aytsam, g‘azablanmang. 19 Siz bizdan: “Otangiz yoki ukangiz bormi?” deb so‘ragan edingiz. 20 Biz shunday deb javob berdik: “Ha, qari otamiz va kenja ukamiz ham bor, otamiz uni keksayganda ko‘rgan. Uning akasi esa o‘lgan, onasidan bir o‘zi yolg‘iz qolgan. Otamiz uni juda yaxshi ko‘radi.” 21 Keyin siz biz, qullaringizga: “O‘sha ukangizni mening oldimga olib kelinglar, uni o‘zim ko‘rayin–chi”, dedingiz. 22 Biz esa sizga: “Bola otasini tashlab kela olmaydi, agar tashlab kelsa, otasi o‘lib qolishi mumkin”, deb aytdik. 23 Keyin siz bizga: “Ukangizni olib kelmagunlaringizcha, ko‘zimga ko‘rinmanglar”, dedingiz. 24 Qulingiz — otamizning huzuriga qaytib borganimizda, sizning gaplaringizni unga aytdik. 25 Vaqti kelib, otamiz bizga: “Yana borib, o‘zimizga bir oz don sotib olib kelinglar”, dedi. 26 Lekin biz otamizga aytdikki: “O‘zimiz bora olmaymiz, agar kenja ukamiz biz bilan birga ketsagina, bora olamiz, ukamiz bormaguncha, biz o‘sha odamning ko‘ziga ko‘rina olmaymiz.” 27 Shunda otamiz bizga dedi: “Bilasizlarki, xotinim Rohiladan ikki o‘g‘il qolgan edi. 28 Biridan ayrildim, uni shubhasiz, yirtqich hayvon tilka–pora qilib tashlagan. Uni o‘shandan keyin ko‘rmadim. 29 Agar bunisini ham mendan olib ketsangiz, u biror falokatga yo‘liqib qolsa, qariganimda meni qayg‘udan o‘liklar diyoriga* kiritasizlar.” 30 Endi, janobi oliylari, men otamning oldiga bu bolani tashlab bora olmayman. Otamizning umri bu bolaning hayotiga bog‘liq. 31 Bola biz bilan yo‘qligini otamiz ko‘rgandan keyin, u o‘lib qoladi. Biz esa keksa otamizni qayg‘udan o‘liklar diyoriga tiqamiz. 32 Men, qulingiz, mana shu bola uchun otamga kafil bo‘lganman. Otamga: “Agar uni qo‘lingizga qaytarib olib kelib topshirmasam, umr bo‘yi sizning oldingizda aybdor bo‘lib qolay”, deb aytganman. 33 Iltimos qilaman, janobi oliylari, shu bolaning o‘rniga men sizga qul bo‘lib qolay, rad etmang. Bola akalari bilan birga qaytib ketaversin. 34 Agar bola men bilan birga ketmasa, otamning oldiga qaysi yuz bilan qaytib boraman?! Otamning boshiga tushadigan kulfatlarga qarab turishga bardosh berolmayman.

45–BOB

Yusuf aka–ukalariga o‘zini tanitadi

1 Endi Yusuf ortiq chidab tura olmadi. U xizmatkorlariga: “Hamma huzurimdan chiqsin!” deb buyurdi. Yusuf o‘zini aka–ukalariga tanitganda, huzurida hech kim qolmagan edi. 2 U shunday qattiq yig‘ladiki, xonadonidagi Misrliklar eshitdi. Bu yangilik tezda fir’avnning saroyiga yetib bordi.

3 — Men Yusufman! — dedi u aka–ukalariga. — Otam hali ham hayot ekan–da?

Lekin aka–ukalar Yusufning qarshisida dahshatga tushib, javob berishga tillari ojiz edi.

4 — Menga yaqinroq kelinglar! — dedi Yusuf. Aka–ukalari unga yaqinroq borishdi.

— Men Yusufman! — dedi u yana, — sizlar Misrga sotgan ukangizman! 5 Meni bu

yerga sotganingizdan g‘am chekmanglar, o‘zlaringizdan xafa ham bo‘lmanglar. Xudo shunday qildi. Xudo insonlar hayotini saqlab qolish uchun sizlardan oldin meni bu yerga jo‘natgan ekan. 6 Ikki yildirki, yurtda qahatchilik. Yana besh yil bu yurtda na yer haydaladi, na hosil bo‘ladi. 7 Xudo ana shunday g‘aroyib yo‘l bilan sizlarni va naslingizni qutqarib, omon qoldirish uchun sizlardan oldin meni yubordi. 8 Ha, meni bu yerga sizlar emas, Xudo yuborgan! Xudo meni fir’avnga maslahatchi, uning butun xonadoniga xo‘jayin, Misr yurti ustidan hokim qildi. 9 Tez bo‘linglar, otamning oldiga qaytib borib, unga shunday deb aytinglar: “O‘g‘lingiz Yusufni Xudo butun Misr ustidan hokim qilibdi. Kechiktirmay yo‘lga otlaning. 10 Siz Go‘shen yerlariga* o‘rnashar ekansiz. O‘zingiz, bolalaringiz, nabiralaringiz, qo‘y–echkilaringiz, podalaringiz — hamma mol–mulkingiz bilan birga Yusufga yaqin joyda bo‘lasiz. 11 Sizga Yusuf qarab turar ekan. Hali oldimizda besh yil qahatchilik turibdi. O‘zingiz ham, xonadoningiz ham och qolmas ekan, chorvangiz ham och qolmas ekan.” 12 O‘zlaringiz ko‘rib turibsizlar, ukam Benyamin, sen ham ko‘rib turibsan, sizlarga bu gaplarni aytayotgan men Yusufman. 13 Misrda men qanchalik shon–shuhratga erishganimni, o‘z ko‘zlaringiz bilan ko‘rganingizni otamga aytinglar. Otamni tezlik bilan mening oldimga olib kelinglar.

14 Yusuf ukasi Benyaminni quchoqlab, bo‘yniga osilib, xursandligidan yig‘lar, Benyamin ham yig‘lar edi. 15 So‘ng Yusuf yig‘laganicha, akalarini birma–bir quchoqlab o‘pdi. Endi akalari Yusuf bilan bemalol gaplasha boshladilar.

16 “Yusufning aka–ukalari kelibdi!” degan xabar tezda fir’avn saroyiga yetib bordi. Fir’avn va uning a’yonlari g‘oyatda xursand bo‘ldilar. 17 Fir’avn Yusufga dedi:

— Aka–ukalaringga ayt, yuklarini ulovlariga ortib, Kan’onga qaytishsin. 18 Otangni, bola–chaqalarini olib, Misrga qaytib kelishsin. Men ularga yurtning eng yaxshi yerlarini beray. Ular bu yerda to‘kin–sochinlikda yashaydilar. 19 Ularga ayt, Misrdan aravalar olib ketishsin. Xotinlarini, bolalarini, otangni o‘sha aravalarda bu yerga olib kelishadi. 20 Qolib ketgan mol–mulklariga achinishmasin. Misrning eng yaxshi noz–ne’matlari ularnikidir.

21 Yoqubning* o‘g‘illari aytilganday qildilar: fir’avnning ko‘rsatmasiga binoan, Yusuf ularga aravalar berdi. Shuningdek, ularga yo‘l uchun oziq–ovqat ham g‘amlab berdi. 22 Yusuf akalarining har biriga bir sidradan yangi kiyim–bosh, Benyaminga esa besh sidra kiyim–bosh va uch yuz bo‘lak kumush* berdi. 23 Otamga deb o‘nta eshakka Misrning eng yaxshi noz–ne’matlaridan, o‘nta eshakka don, otasi uchun yo‘lda yegani oziq–ovqat yuklab jo‘natdi. 24 Yusuf aka–ukalarini yo‘lga kuzatib qo‘ydi. Ular yo‘lga chiqayotganlarida Yusuf: “Yo‘lda janjallashib yurmanglar*”, dedi.

25 Shunday qilib, ular Misrdan Kan’on yurtiga — otalari huzuriga qaytib keldilar. 26 “Yusuf tirik ekan! U butun Misr yurtining hokimi ekan!” deb aytishdi o‘g‘illari. Yoqub bu yangilikdan hang–mang bo‘lib qoldi, o‘g‘illarining gapiga ishonmadi. 27 Lekin o‘g‘illari Yoqubga Yusufning hamma gaplarini aytib bo‘lib, “Otamni Misrga olib kelinglar”, deb Yusuf yuborgan aravalarni ko‘rganda, Yoqubning ruhi tetiklashdi.

28 — Xudoga shukur, o‘g‘lim Yusuf tirik ekan, menga shuning o‘zi kifoya, — dedi Yoqub, — o‘lmasimdan burun borib uni ko‘rib qolay.

46–BOB

Yoqub va uning oilasi Misrga koʻchadi

1 Shunday qilib, Yoqub* butun mol–mulkini olib, yoʻlga chiqdi. U Bershebaga* yetib
kelib, otasi Isʼhoqning Xudosiga qurbonliklar qildi. 2 Tunda Xudodan Yoqubga vahiy
keldi:
— Yoqub! Yoqub!
— Labbay! — dedi u.
3 — Men Xudoman, otangning Xudosiman, — dedi Xudo. — Qoʻrqmasdan Misrga
boraver, Men u yerda sendan buyuk xalq yarataman. 4 Men sen bilan birga Misrga
boraman. Sen Yusufning qoʻlida jon berasan. Vaqti kelib, Sening naslingni Oʻzim Misrdan
olib chiqaman.
5 Soʻngra Yoqub Bershebadan ketdi. Oʻgʻillar otasini, bolalarini, xotinlarini firʼavn
yuborgan aravalarga oʻtqazdilar. 6 Ular Kanʼonda orttirgan chorvasini, hamma mol–
mulkini olib, Misrga ketdilar. Yoqub va uning hamma oila aʼzolari 7 — oʻgʻillari, qizlari va
nabiralari ketdilar.

8 Misrga ketgan Isroil xalqi, yaʼni Yoqub naslining ismlari quyidagichadir:

Yoqubning Leaxdan koʻrgan nasli

Yoqubning toʻngʻich oʻgʻli Ruben va 9 uning oʻgʻillari — Xanoʻx, Palluv, Xazron va
Karmi.
10 Shimoʻn va uning oʻgʻillari — Yamuvol, Yomin, Oxad, Yoxin, Zoʻxar va Shovul.
(Shovulning onasi Kanʼonlik edi.)
11 Levi va uning oʻgʻillari — Gershon, Qohot, Marori.
12 Yahudo va uning oʻgʻillari — Gʻur, Oʻnan, Shelo, Paraz va Zerax. (Lekin Gʻur va
Oʻnan Kanʼon yurtida vafot etgan edilar*.)
Paraz va uning oʻgʻillari — Xazron va Xomul.
13 Issaxor va uning oʻgʻillari — Toʻlo, Puvax, Yoshuv* va Shimron.
14 Zabulun va uning oʻgʻillari — Sared, Eloʻn va Yaxliyol.

15 Leaxning bu oʻgʻillari va qizi Dina Paddon–Oramda* tugʻilgan edilar. Yoqubning
Leaxdan tarqalgan nasli jami boʻlib oʻttiz uch kishi edi.

Leaxning choʻrisi Zilpodan Yoqubning koʻrgan nasli

16 Gad va uning oʻgʻillari — Zafoʻn*, Xagi, Shuno, Ezboʻn, Eri, Aroʻd* va Erali.
17 Osher va uning oʻgʻillari — Yimnax, Yishvo, Yishvi va Bariyo. Bularning Serax
degan singillari ham bor edi. Bariyoning oʻgʻillari — Xaber va Malxiyol.

18 Zilpo Yoqubga tugʻib bergan nasl ana shulardir. Ular hammasi boʻlib oʻn olti
kishi edi. Lobon Zilponi qizi Leaxga choʻri qilib bergan edi.

Yoqubning Rohiladan koʻrgan nasli

19 Yoqubning xotini Rohila tuqqan oʻgʻillar — Yusuf bilan Benyamin.
20 Yusuf Misr yurtida ikki oʻgʻil — Manashe va Efrayimni koʻrdi. Yusufning xotini
Osanat On shahrining* ruhoniysi Poʻtiferoning qizi edi.
21 Benyamin oʻgʻillari — Belax, Boxir, Oshbol, Gera, Noʻmon, Exi, Roʻsh, Mupim,
Xupim va Ard.

22 Yoqubning Rohiladan tarqalgan nasli ana shulardir. Ular hammasi boʻlib oʻn
toʻrt kishi edi.

Rohilaning choʻrisi Bilxaxdan Yoqubning koʻrgan nasli

23 Dan va uning oʻgʻli — Xushim.
24 Naftali va uning oʻgʻillari — Yaxziyol, Goʻno, Izar va Shillem.

25 Yoqubning Bilxaxdan tarqalgan nasli ana shulardir. Bilxaxni Lobon qizi
Rohilaga choʻri qilib bergan edi. Hammasi boʻlib yetti kishi edi.

26 Yoqub bilan birga Misrga kelgan uning nasli hammasi boʻlib oltmish olti kishi* edi.
Kelinlari bu hisobga kirmasdi. 27 Yusuf Misrda ikki oʻgʻil koʻrgan edi. Shunday qilib,
Yoqub xonadonidan Misrga kelganlar hammasi boʻlib yetmish kishi* edi.

Yoqub va uning xonadoni Misrda

28 Yoqub Yahudoni Yusufning oldiga: “Bizni Goʻshen yerlarida* kutib ol” degan xabar
bilan oʻzlaridan oldin joʻnatdi. Ular Goʻshenga yetib kelganlarida, 29 Yusuf aravasini
qoʻshib, otasini kutib olish uchun Goʻshenga bordi. Yusuf otasini koʻrishi bilanoq, uni
quchoqlab, boʻyniga osilib, uzoq yigʻladi. 30 Yoqub Yusufga:

— Tirik ekaningni koʻzlarim bilan koʻrdim, endi oʻlsam ham armonim yoʻq, — dedi.
31 Yusuf aka–ukalariga, otasi xonadonining qolgan ahliga dedi:

— Men borib, fir’avnga: “Kan’on yurtidan aka–ukalarim, otamning qolgan oila
a’zolari mening oldimga kelishdi”, deb xabar berayin. 32 Men fir’avnga yana: “Ular
choʻpon, chorvadorlik bilan shugʻullanishadi, mol–qoʻylarini, bor mulkini olib
kelishibdi”, deb aytayin. 33 Fir’avn sizlarni chaqirib: “Kasb–koringiz nima?” deb soʻrab
qolsa, 34 unga: “Biz, qullaringiz, yoshligimizdan hozirgacha choʻponlik bilan
mashgʻulmiz, ota–bobolarimiz ham choʻpon boʻlib oʻtishgan”, deb aytinglar. Toki
Goʻshen yerlariga oʻrnashib olishlaringizga u ijozat bersin. Chunki Misrliklar
choʻponlardan hazar qilishadi.

47–BOB

1-2 Yusuf akalaridan beshtasini fir’avn huzuriga olib borib, unga shunday dedi:
“Mening otam bilan aka–ukalarim mol–qoʻylarini, butun mulkini olib, Kan’on yurtidan
kelishdi. Ular hozir Goʻshen yerlarida*.” Soʻng Yusuf akalarini fir’avnga tanishtirdi.
3 Fir’avn ulardan:

— Kasb–koringiz nima? — deb soʻradi.

— Biz, qullaringizning kasbi choʻpon, ota–bobolarimiz ham choʻpon oʻtishgan, — deb
javob berishdi ular fir’avnga. 4 — Biz, Misrda istiqomat qilib tursak, deb keldik. Chunki
qoʻy–echkilarimiz uchun Kan’onda yaylov yoʻq, u yerda ogʻir qahatchilik. Siz, janobi
oliylaridan iltimosimiz shuki, biz, qullaringizga, Goʻshen yerlarida istiqomat qilib
turishimiz uchun ijozat bersangiz.

5 Shunda fir’avn Yusufga dedi:

— Otang, aka–ukalaring sening oldingga kelishgan ekan, 6 ana, Misr yurti ularniki.
Ularni yurtning eng yaxshi yeriga — Goʻshen yerlariga joylashtir. Agar ularning orasida
uddaburonlari boʻlsa, mening chorvamni ham ularga topshirib qoʻy.

7 So‘ng Yusuf otasi Yoqubni boshlab kelib, fir’avn huzuriga olib kirdi. Yoqub fir’avnni duo qildi*.
8 — Yoshingiz nechada? — deb so‘radi fir’avn Yoqubdan.
9 — Bir yuz o‘ttiz yildan beri bu dunyoda mehmonman, — dedi Yoqub fir’avnga. — Ota–bobolarim ham bu dunyodan mehmon bo‘lib o‘tdilar. Lekin mening hayotim tez va qiyinchilik bilan kechdi, men hali ota–bobolarim yoshiga yetmadim.
10 Shundan keyin Yoqub fir’avnni yana duo qilib, uning huzuridan chiqdi. 11 Fir’avn amr berganday, Yusuf otasini, akalarini Misrdagi eng yaxshi yerlarga — Ramzes shahri yaqinidagi yerlarga* joylashtirdi. 12 Yusuf otasini, aka–ukalarini, otasining jamiki xonadoni ahlini, ularning soniga qarab, oziq–ovqat bilan ta’minladi.

Qahatchilik

13 Qahatchilik tobora kuchayib boraverdi. Qahatchilik Misr va Kan’on yurtini xarob qildi. 14 Yusuf donni kumushga* almashtirib, Misrdagi va Kan’ondagi bor kumushlarni yig‘ib oldi. U kumushlarni fir’avnning xazinasiga olib kelib to‘playverdi. 15 Misr va Kan’on xalqlari kumushlarini sarf qilib bo‘ldi. Hamma Misrliklar Yusufning huzuriga kelishardi. “Kumushlarimiz tugadi, lekin bizga don bersinlar! Janoblarining ko‘z o‘ngilarida o‘lib ketmaylik!” deb yalinishardi. 16 Yusuf esa ularga: “Agar kumushlaringiz tugagan bo‘lsa, mol–holingizni olib kelinglar, evaziga don beraman”, deb javob qilardi. 17 Shunday qilib, ular chorvasini Yusufga olib kelishardi. Yusuf ularning otlarini, qo‘y–echkilarini, podalarini, eshaklarini olib, evaziga don berardi. O‘sha yili Yusuf ularning chorvasini olib, evaziga yegulik berdi. 18 Kelgusi yili ular yana Yusufning huzuriga kelib, hasrat qilishdi: “Biz janobi oliylaridan yashirib nima ham qilardik: kumushlarimiz tugagan, mol–qo‘ylarimiz o‘zlariniki bo‘ldi. Janobi oliylariga tanamizu yerimizdan tashqari beradigan narsamiz qolmadi. 19 Janoblarining ko‘zi oldida o‘zimiz ham, yerimiz ham nobud bo‘lib ketmasin. O‘zimizni ham, yerlarimizni ham sotib olib, evaziga don bersinlar. Biz yerlarimizni fir’avnga berib, o‘zimiz unga qul bo‘lishga tayyormiz. Hoziroq bizga don–dun bersalar, toki o‘lmay tirik qolaylik, yerlarimiz tashlandiq bo‘lib qolmasin.”
20 Shunday qilib, Yusuf Misrdagi jamiki yerlarni fir’avn uchun sotib oldi. Qahatchilik nihoyatda kuchayganidan, hamma Misrliklar dalalarini Yusufga sotdilar. Ularning hamma yerlari fir’avnniki bo‘lib qoldi. 21 Shu tariqa Misrning bu chetidan u chetigacha bo‘lgan butun xalq fir’avnga qul bo‘lib qoldi*. 22 Yusuf faqat ruhoniylarning yerlarinigina sotib olmadi. Chunki ularga fir’avn tomonidan oziq–ovqat tayinlangan bo‘lib, yerlarini sotishlariga zarurat yo‘q edi. 23 Shundan so‘ng Yusuf xalqqa aytdi:
— O‘zlaringiz ham, yerlaringiz ham endi fir’avnniki. Mana sizlarga urug‘, dalaga ekinglar. 24 Hosilni yig‘ib olganlaringizda, beshdan birini fir’avnga berasizlar, beshdan to‘rt qismi o‘zlaringizniki bo‘ladi, kelgusi yil hosili uchun urug‘lik qilasizlar, bola–chaqalaringiz bilan yeb, tirikchilik qilasizlar.
25 — Siz bizga iltifot ko‘rsatdingiz, siz bizning hayotimizni saqlab qoldingiz, janobi oliylari! — deb aytdi xalq. — Shuning uchun biz fir’avnga qul bo‘lamiz.
26 Fir’avn hosilning beshdan birini oladigan bo‘ldi. Yusuf buni butun Misr yurti bo‘ylab qonun qilib qo‘ydi. Bu qonun bugungacha* bor. Faqat ruhoniylarning yerlarigina fir’avnning mulki bo‘lmadi, xolos.

Yoqubning oxirgi vasiyati

27 Shunday qilib, Yoqub* nasli Misrning Go‘shen yerlariga o‘rnashib qoldi. Yoqub
nasli u yerda mulk orttirdi, aholisi ko‘payib bordi. 28 Yoqub Misr yurtida 17 yil yashadi.
U 147 yil umr ko‘rdi.
29 Yoqubning umri oxirlab qoldi. U o‘g‘li Yusufni chaqirib shunday dedi:
— Agar mendan rozi bo‘lsang, qo‘lingni sonim ostiga qo‘yib*, “Sizning vasiyatingizni
bajaraman”, deb qasam ich*. Oxirgi vasiyatim shuki, meni Misrda dafn qilmagin. 30 Bu
olamdan o‘tganimdan keyin, jasadimni Misrdan olib ketib, ota–bobolarimning
xilxonasiga* dafn qil.
Yusuf: “Aytganingizday qilaman”, deb va’da berdi. 31 Yoqub: “Mening oldimda qasam
ich”, deb talab qildi. Yusuf qasam ichdi. Yoqub o‘z to‘shagi ustida sajda qildi.

48–BOB

Yoqub Efrayim bilan Manasheni duo qiladi

1 Bir kuni Yusufga: “Otangiz kasal” degan xabar yetib keldi. Yusuf ikkala o‘g‘lini —
Manashe bilan Efrayimni yoniga olib, otasining huzuriga bordi. 2 Yoqub Yusufning
kelganini eshitgach, kuchini yig‘ib, to‘shagiga o‘tirdi. 3 Yoqub Yusufga dedi:
— Qodir Xudo Kan’on yurtidagi Luz shahrida* menga zohir bo‘lgan va marhamat
ko‘rsatib, 4 shunday degan edi: “Men seni barakali qilib, naslingni ko‘paytiraman. Men
sendan ko‘p xalqlarni yarataman. Bu yerni sendan keyin naslingga abadiy mulk qilib
beraman.” 5 Men Misrga kelmasimdan avval Efrayim bilan Manashe bu yerda tug‘ilgan
edilar. Shu ikkala o‘g‘ling endi mening o‘g‘illarimdir. Ruben va Shimo‘n menga qanday
o‘g‘il bo‘lsa, sening ikkala o‘g‘ling ham mening o‘g‘illarim bo‘ladi. 6 Efrayim bilan
Manashedan keyin tug‘iladigan o‘g‘illaring esa o‘zingniki bo‘ladi. Tug‘iladigan
o‘g‘illaringga Efrayim va Manashega qarashli yerlardan meros berilsin. 7 Buni shu
sababdan qilyapmanki, men Paddondan* qaytib kelayotganimda, afsuski, onang Rohila
Kan’on yurtida — Efratga yetib bormasdan yo‘lda olamdan o‘tgan edi. Men uni o‘sha
yerda — Efratga boradigan yo‘l bo‘yida dafn qilganman. (Efrat hozir Baytlahm* deb
yuritiladi.)
8-10 Bu paytga kelib Yoqubning* ko‘zlari keksalikdan xiralashgan, yaxshi ko‘rmas edi.
Yoqub Yusufning o‘g‘illarini ko‘rganda, “Bular kimlar?” deb so‘radi.
— Bular Xudo shu yerda menga bergan o‘g‘illarim, — deb javob berdi Yusuf.
— Menga yaqinroq olib kelgin ularni, duo qilayin.
Yusuf o‘g‘illarini otasiga yaqinroq olib bordi. Yoqub bolalarni bag‘riga bosib, o‘pdi.
11 Yoqub Yusufga dedi:
— Men seni hech qachon ko‘rmayman, deb o‘ylagan edim. Ammo Xudo sening
bolalaringni ham ko‘rishni nasib etdi.
12 Yusuf bolalarni otasining tizzasidan* oldi va otasiga muk tushib ta’zim qildi.
13 Yusuf o‘ng qo‘li bilan Efrayimni ushlab, Yoqubning chap tomoniga, chap qo‘li bilan
Manasheni ushlab, Yoqubning o‘ng tomoniga yaqinroq olib keldi. 14 Lekin Yoqub
qo‘llarini chalishtirdi–yu, o‘ng qo‘lini* kenja o‘g‘il Efrayimning boshiga, chap qo‘lini
to‘ng‘ich o‘g‘il Manashening boshiga qo‘ydi. 15 So‘ngra Yusufni duo qildi*:

“Ota–bobolarim Ibrohim va Is’hoqqa yo‘l ko‘rsatgan Xudo,

Umrim boʻyi mening choʻponim boʻlgan Xudo,
16 Barcha ofatlardan meni saqlagan farishta
Bu bolalarga ham marhamat koʻrsatsin.
Mening nomim, bobom Ibrohim, otam Is’hoqning nomi
Shu bolalar orqali yashasin, yer yuzida ular lak–lak koʻpaysin.”

17 Lekin otasi oʻng qoʻlini Efrayimning boshiga qoʻygani Yusufga yoqmadi. Shuning uchun otasining oʻng qoʻlini Efrayimning boshidan Manashening boshiga olib qoʻymoqchi boʻldi.
18 — Bunday emas, ota, — dedi Yusuf, — bunisi toʻngʻichi, oʻng qoʻlingizni uning boshiga qoʻying.
19 Lekin otasi rozi boʻlmadi:
— Bilaman, oʻgʻlim, bilaman. Manashening nasli ham buyuk xalq boʻladi. Lekin Efrayimning avlodi, Manashenikiga qaraganda, yanada buyuk boʻlib, Efrayimning avlodidan koʻp xalqlar kelib chiqadi.
20 Yoqub oʻsha kuni Efrayim bilan Manasheni shunday deb duo qildi:

“Isroil xalqi sizlarning nomingizni aytar bir–birini duo qilganda,
Efrayim va Manasheday qilsin seni Xudo, deb aytganlarida.”

Shunday qilib, Yoqub Efrayimni Manashedan yuqori qoʻydi.
21 Shundan keyin Yoqub Yusufga dedi:
— Mening umrim oxirlab boryapti. Lekin Xudo sizlar bilan birga boʻladi, sizlarni ota–bobolaringizning yeriga yana qaytarib olib boradi. 22 Shakamni* esa akalaringga emas, senga beryapman. Bu hosildor yerlarni men qilichu kamonim bilan Amor xalqlaridan tortib olganman*.

49–BOB

Yoqubning soʻnggi soʻzlari

1 Yoqub oʻgʻillarini huzuriga chorlab dedi: “Yonimga kelinglar, kelgusida sizlarga nima boʻlishini aytay.

2 Keling, quloq soling, ey Yoqub oʻgʻillari,
Eshiting otangiz Isroilning soʻzlarini.

3 Ruben, sensan mening toʻngʻichim,
Quvvatimning ilk mevasi, ham qudratim,
Shuhratu qudratda yuksagi sensan.
4 Lekin dengiz toʻlqiniday betizginsan,
Bundan keyin aslo ustun boʻlmaysan.
Otangning yotogʻiga sen kirding,
Toʻshagimga chiqib, uni bulgʻading*.

5 Shimoʻn bilan Levi hamtovoqlardir,
Qilichlari jabr–jafo qurolidir*.

6 Hech qachon sherik bo‘lmasman ularning fitnalariga,
Aslo qo‘shilmasman ularning yig‘inlariga.
Ular g‘azab ila o‘ldirdilar insonlarni,
Rohatlanish uchun mayib qildilar ho‘kizlarni.
7 La’nat bo‘lsin ularning rahmsiz g‘azabiga,
La’nat bo‘lsin ularning beayov zulmlariga!
Tarqatib yuboraman ularni har tomonga,
Yoqubning yurtida — Isroilning yurtida.

8 Ey Yahudo*, seni madh etar birodarlaring,
G‘animlaring gardanida bo‘lar qo‘llaring.
Senga ta’zim qilishar otangning o‘g‘illari.
9 Yahudo sherning bolasiga o‘xshar,
O‘g‘lim, ovdan qaytib kelding sen,
Sherdek cho‘kib, cho‘zilib yotarsan.
Seni uyg‘otmoqqa kim jur’at etar?!
10 Yahudoning qo‘lidan ketmas saltanat hassasi*,
Uning naslida qolar saltanat tamg‘asi,
Xalqlar unga o‘lpon keltirarlar*,
Unga itoat etib ta’zim qilarlar.
11 Eshagini u doim bog‘laydi tokka,
Xo‘tikchani — tok novdasiga.
Sharobda yuvadi kiyimlarini
A’lo sharobda — ko‘ylaklarini*.
12 Sharobdan ham qora ko‘zlari,
Sutdan ham oppoq tishlari*.

13 Zabulun o‘rnashadi dengiz bo‘yida,
Kemalarga u bandargoh bo‘lajak.
Uning chegarasi Sidongacha* borajak.

14 Issaxor qo‘rada* o‘rnashib yotgan
Kuchli eshakka o‘xshar.
15 Ko‘rsaki, o‘rnashgan yeri naqadar yaxshi,
Juda yoqimli ekan bu joylar.
Yukni ko‘tarmak chun yelkasin tutdi,
Og‘ir mehnatga u qul bo‘lib qoldi.

16 Isroil qabilasining bittasi bo‘lib,
Dan* o‘z xalqini hukm qiladi.
17 Dan yo‘lda yotgan bir ilon bo‘ladi,
So‘qmoqda cho‘zilib yotgan zaharli ilon.
Otlarning to‘pig‘ini u chaqib olar,
Chavandoz yiqilar, chalqancha tushar.

18 Sendan najot kutarman, ey Egam!*

19 Gadni* talab ketadi bosqinchilar,
Gad ularning izidan bostirib borar.

20 Osher tansiq taom yetishtirar,
Shohona noz–ne’matlar tayyorlar.

21 Naftali ozod yurgan ohuga o‘xshar,
Ajoyib ohuchalar dunyoga keltirar*.

22 Yusuf o‘xshar serhosil tokka —
Buloq bo‘yidagi serhosil uzumga.
Uning novdalari devordan oshib o‘tar*.
23 Rahmsiz kamonkashlar unga hujum qilishdi,
O‘q otishdi unga, qattiq siqishdi.
24 Lekin Yusufning kamoni tarang tortildi,
Uning qo‘llari ham chaqqonlashdi
Yoqubning qudratli Xudosi kuchi tufayli,
Isroilning Cho‘poni, Qoyasi tufayli.
25 Otangning Xudosi senga madad bergay,
Qodir Xudo senga marhamat ko‘rsatgay
Yuqoridagi osmon barakalari ila,
Yer qa’ridan chiqqan suvning barakalari ila,
Ona ko‘kragiyu pushtining barakasi ila.
26 Abadiy tog‘lar barakasidan* ham,
Qadim tepaliklar ne’matidan ham,
Otangning duolari kuchlidir.
Bu barakalar Yusufga nasib etar,
Birodarlari ichra u yo‘lboshchi bo‘lar.

27 Benyamin och bo‘riga o‘xshar,
Sabohda u o‘ljasini yamlab yutar,
Oqshomda u topganini bo‘lishar.”

28 Isroilning o‘n ikki qabilasi ana shular bo‘lib, otasi ularni duo qilganda, yuqoridagi so‘zlarni aytgan edi. Har birini o‘ziga loyiq tarzda duo qildi.

Yoqub vafot etib, dafn qilinadi

29 Shundan so‘ng Yoqub o‘g‘illariga vasiyat qildi:
— Mening kunim bitib boryapti. Meni Xet xalqidan Efro‘nning dalasidagi g‘orga — ota–bobolarim yoniga dafn qilinglar. 30 O‘sha g‘or Kan’on yurtida, Mamre sharqida joylashgan Maxpaladagi dalada. Bobom Ibrohim bu dalani Efro‘ndan qabriston uchun sotib olgan. 31 U yerga bobom Ibrohim bilan buvim Sora dafn qilingan*. Otam Is’hoq bilan onam Rivqo ham u yerga dafn qilingan. U yerga men Leaxni dafn qilganman.
32 Bobom Ibrohim Xet xalqidan sotib olgan g‘or o‘shadir.
33 Yoqub o‘g‘illariga vasiyat qilib bo‘lgach, yana to‘shagiga yotdi–yu, joni uzilib, ota–bobolari yoniga ketdi.

50–BOB

1 Yusuf o‘zini otasining ustiga tashlab, yig‘laganicha, uni o‘pdi. 2 Yusuf qo‘l ostidagi
tabiblarga: “Otamning jasadini mumiyolanglar!” deb amr berdi. Tabiblar Yoqubning*
jasadini mumiyolashdi. 3 Ular bu ish uchun qirq kun vaqt sarf qildilar. Chunki
mumiyolash uchun shuncha vaqt talab qilinar edi. Misrliklar Yoqub uchun yetmish kun
aza tutishdi.
4 Aza muddati tugagach, Yusuf fir’avnning a’yonlari huzuriga kelib, dedi:
— Agar men sizlarning iltifotingizga sazovor bo‘lsam, fir’avn janobi oliylariga shu
gaplarni yetkazsangizlar: 5 “Otam menga qasam ichirib, olamdan o‘tganimdan keyin,
jasadimni Kan’on yurtiga olib borib, o‘zim uchun men qazigan qabrga dafn qil, deb
aytgan. Endi otamni dafn qilgani borishimga ijozat bersalar. Otamni dafn qilganimdan
keyin qaytib kelaman.”
6 — Mayli, boraver, — deb ijozat berdi fir’avn, — qasamni ado qilib, otangni dafn
qilib kel.
7 Shunday qilib, Yusuf otasini dafn qilgani jo‘nadi. Fir’avnning hamma a’yonlari —
saroyidagi amaldorlar, Misr yurtidagi barcha amaldorlar Yusuf bilan birga ketishdi.
8 Shuningdek, Yusufning barcha oila a’zolari, aka–ukalari, otasining qolgan xonadoni ahli
ham Yusuf bilan birga ketishdi. Faqat ularning bolalari, qo‘y–echkilari, podalari Go‘shen
yerlarida* qoldirildi. 9 G‘oyat katta jamoa Yusufga hamroh bo‘ldi. U bilan bir talay
aravakashlar va jang aravalari ham ketdi. 10 Ular Iordan daryosi sharqidagi Otad degan
xirmonga yetib keldilar. U yerda uzoq vaqt og‘ir ta’ziya marosimi o‘tkazdilar. Shunday
qilib, Yusuf otasi uchun yetti kun aza marosimi o‘tkazdi. 11 Kan’on xalqlari bu yerdagi
aza marosimini ko‘rib: “Misrliklar qanday og‘ir aza marosimi o‘tkazyaptilar–a!” deb
aytdilar. Shuning uchun bu joyga Ovil–Misrayim* deb nom qo‘ydilar. 12 Shunday qilib,
Yoqub o‘g‘illariga qanday vasiyat qilgan bo‘lsa, o‘g‘illari otalarining vasiyatini to‘la–
to‘kis bajardilar. 13 Ular otalarining jasadini Kan’on yurtiga olib kelib, Maxpaladagi
dalada joylashgan g‘orga dafn qildilar*. Ibrohim o‘z oilasiga qabriston uchun Xet
xalqidan bo‘lgan Efro‘ndan sotib olgan Mamre sharqidagi g‘or shudir. 14 Yusuf otasini
dafn qilgandan keyin, aka–ukalarini, otasini dafn qilgani birga kelgan hamrohlarini
ergashtirib Misrga qaytdi.

Yusuf akalariga tasalli beradi

15 Otalari vafot etgandan keyin, Yusufning akalari: “Biz Yusufga yomonlik qilgan edik,
endi u o‘sha yomonliklarimiz uchun kek saqlab yurgan bo‘lsa, bizdan o‘ch oladi”, deb
qo‘rqa boshladilar. 16 Shuning uchun ular Yusufga shunday xabar yubordilar: “Otamiz
vafotidan oldin bizga, 17 Yusufning huzuriga borib aytinglar, men undan o‘tinaman,
sizlar unga qarshi qilgan og‘ir jinoyatlaringizni unutsin, deb aytgan edilar. Iltimos
qilamiz, otang Xudosining bu qullari qilgan jinoyatlarni unutgin.” Yusuf shu xabarni
eshitganda, yig‘lab yubordi. 18 Keyin akalari ham kelib: “Biz sening qullaringmiz”, deb
Yusufning oyoqlariga yiqildilar. 19 Lekin Yusuf akalariga:
— Qo‘rqmanglar, men sizlarni hukm qilib, jazolaydigan Xudo emasman–ku! — dedi.
20 — Sizlar menga ravo ko‘rgan yomonlikni Xudo yaxshilikka ishlatdi. Son–sanoqsiz
odamlarni saqlab qolish uchun U meni shu yerga olib keldi. 21 Shuning uchun
qo‘rqmanglar, men o‘zlaringizni ham, bola–chaqalaringizni ham boqaman.
Yusuf akalariga muloyim gapirib, ularga tasalli berdi.

Yusuf vafot etadi

22 Shunday qilib, Yusuf, uning aka–ukalari, ularning oilalari Misrda yashab qoldilar.
Yusuf 110 yil umr koʻrdi. 23 Yusuf Efrayimning nevara–chevaralarini ham koʻrdi.
Manashening oʻgʻli Moxirning bolalari tugʻilganda, Yusuf hayot edi. Yusuf bu bolalarni
ham farzandlari qatoriga qabul qildi.
24 “Mening umrim oxirlab boryapti, — dedi Yusuf aka–ukalariga. — Lekin Xudo
sizlarni kuzatib turadi, sizlarni bu yurtdan olib chiqib, Ibrohim, Isʼhoq va Yoqubga
beraman, deb qasam ichgan yurtga qaytarib olib boradi.” 25 Soʻng Yusuf Isroil urugʻlariga
qasam ichdirib: “Xudo sizlarning oldingizga kelganda, sizlar mening suyaklarimni bu
yerdan olib ketinglar”, — dedi. 26 Yusuf 110 yil yashab, olamdan oʻtdi. Uning jasadini
mumiyolab, Misrda bir tobutga soldilar.

IZOHLAR

1:1 *Xudo azalda osmon bilan yerni yaratdi* — bu oyat yaratilish hikoyasining kirish qismidir. Ushbu bobning 3-31–oyatlarida bayon etilgan Xudoning olti kun davomidagi yaratish faoliyati bu oyatda qisqacha o‘z ifodasini topgan. Ibroniychadagi *osmon bilan yer* jumlasi butun dunyoni va undagi barcha borliqni bildiradi.

1:2 *Yer shaklsiz va bo‘m–bo‘sh bo‘lib…Xudoning Ruhi suvlar uzra yurardi* — Xudo shu bobning 3–oyatida gapirishni boshlaganda, dunyoning ahvoli qandayligi mana shu oyatda tasvirlangan. Mazkur bobning 3-31–oyatlarida Xudo borliqni tartibga solganligi va dunyoga hayot berganligi haqida so‘z yuritiladi.

1:5 *Kech kirib, tong otdi* — qorong‘ilik (tun) va yorug‘lik (kunduz) vaqtiga ishora qiluvchi she’riy jumla. Qadimda Isroil xalqining urf–odatiga ko‘ra, yangi kun quyosh botgandan keyin boshlanib, keyingi kuni quyosh botguncha davom etar edi. Bu jumla yana shu bobning 8, 13, 19, 23 va 31–oyatlarida ishlatilgan.

1:7 *…gumbazni yaratib, gumbazning ostidagi suvlardan gumbaz ustidagi suvlarni ajratdi* — qadimda Isroil xalqining tasavvuriga ko‘ra, osmon ulkan shisha gumbazga o‘xshar edi, bu gumbaz osmondagi suvlarni ushlab turardi. Gumbaz ostidagi suvlar bu oyatda yer sathini qoplab turgan buyuk dengiz suvlarini bildiradi (shu bobning 2–oyatiga qarang).

1:14 *nishonlanadigan bayramlar* — ibroniycha matnda *belgilangan vaqtlar*. Dehqonchilik mavsumlariga oid bayramlarga ishora. Bu ibroniycha iborani *belgilangan fasllar* deb tarjima qilsa ham bo‘ladi.

1:24 *sudralib yuruvchi jonivorlar* — shu ibora bilan tarjima qilingan ibroniycha so‘z yerda sudralib yuradigan va yer ostiga uya qurib yashaydigan mayda jonivorlarni, sudralib yuruvchilarni va hasharotlarni bildiradi.

1:26 *Endi inson zotini yarataylik, ular O‘z suratimizday, O‘zimizga o‘xshagan bo‘lsin* — Xudo odamni O‘z suratiday, O‘ziga o‘xshash qilib yaratgan. U yaratgan boshqa narsalarga qaraganda, odam yaqqol ajralib turadi. Inson zotining yaratilishi yaratilish hikoyasining cho‘qqisi hisoblanadi.

1:26 *…yer yuzidagi chorva hamda jamiki yovvoyi hayvonlar…* — qadimiy suryoniycha tarjimadan. Ibroniycha matnda *…chorva, butun yer yuzi…*.

2:4 *Osmon bilan yer* — 1:1 izohiga qarang.

2:6 *…suv chiqib…* — yoki *…bug‘ ko‘tarilib…*.

2:7 *odam* — ibroniycha matndagi odam (*adam*) va tuproq (*adama*) so‘zlari ohangdoshdir.

2:12 *marvarid* — yoki *xushbo‘y yelim*.

2:13 *Kush* — ibroniycha matnda *Kush* so‘zi odatda Misrdan janubda joylashgan yerlarni bildiradi. Bu yerlar hozirgi Sudan va Efiopiya mamlakatlarining bir qismini o‘z ichiga olgan edi. Biroq bu oyatda hozirgi Eronning g‘arbidagi yerlar nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin.

2:23 *…Xotin…erkakdan…* — ibroniycha matndagi xotin (*isha*) va erkak (*ish*) so‘zlari

ohangdoshdir.

3:5 *Xudo* — yoki *xudolar* yoxud *ilohiy mavjudotlar*.

3:18 *qushqo‘nmas* — mayda tikanli yovvoyi o‘t.

3:20 *Odam Ato* — ibroniycha matnda *odam*. Ibroniycha matnda *odam* va *Odam Ato* uchun bir so‘z ishlatilgan. Bu oyatdan boshlab matnda bu so‘z Odam Atoga nisbatan ishlatilganda ism sifatida tarjima qilingan.

3:20 *Momo Havo* — bu ism ibroniychadagi *tiriklar* so‘ziga ohangdosh. Mazkur oyatda shu ibroniycha *tiriklar* so‘zi *insonlar* deb tarjima qilingan.

3:24 *karublar* — qanotli samoviy mavjudotlar. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi KARUB, KARUBLAR so‘ziga qarang.

4:1 *Qobil* — bu ism ibroniychadagi *ega bo‘lmoq* so‘ziga ohangdosh.

4:7 *…seni qabul qilmasmidim?!* — yoki *…nazringni qabul qilmasmidim?!* yoxud *…xursand bo‘lmasmiding?!*

4:8 *Qobil ukasi Hobilga: “Yur, dalaga boramiz”, deb taklif qildi* — qadimiy yunoncha, suryoniycha va lotincha tarjimalardan. Ibroniycha matnda *Qobil ukasi Hobil bilan gaplashdi*.

4:16 *Nod* — ibroniychadagi ma’nosi *darbadarlik*.

4:25 *Shis* — bu ism ibroniychadagi *berilgan* so‘ziga ohangdosh.

5:3 *…o‘g‘il ko‘rgan edi* — ibroniycha matnda bu jumla *uning naslida o‘g‘il tug‘ilgan edi* degan ma’noni ham anglatishi mumkin. Odatda Muqaddas Kitobda berilgan nasabnomalarda hamma nasllarning to‘liq ro‘yxati berilmay, faqat ma’lum bir avlodning ma’lum bir ajdoddan kelib chiqqani ko‘rsatiladi.

5:6 *…o‘g‘li…ko‘rgan edi* — bu oyatda hamda shu bobning 7-26–oyatlarida ishlatilgan bu ibroniycha jumla *uning naslida…tug‘ilgan edi* degan ma’noni ham anglatishi mumkin (shu bobning 3–oyati izohiga qarang).

5:18 *Xano‘x* — sharq yozma adabiyotida Idris payg‘ambar deb e’tirof etilgan.

5:29 *Nuh* — bu ism ibroniychadagi *yengil tortmoq* so‘ziga ohangdosh.

6:2 *Ilohiy zotlar* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *Xudoning o‘g‘illari* yoki *Xudolarning o‘g‘illari* (shu bobning 4–oyatida ham bor). Bu ibroniycha ibora Eski Ahdning boshqa joylarida ham ilohiy zotlarga nisbatan ishlatilgani uchun (Ayub 1:6, 2:1, 38:7 ga qarang), olimlarning aksariyati bu ibora mazkur oyatda ham ilohiy zotlarni bildiradi, deb ta’kidlashadi (yana 1 Butrus 3:19-20, 2 Butrus 2:4, Yahudo 6-7–oyatlarga qarang). Biroq ba’zi olimlar Eski Ahdning boshqa oyatlariga asoslangan holda (misol uchun, Qonunlar 14:1, 2 Shohlar 7:14 ga qarang), bu yerda inson zoti haqida so‘z yuritilgan deb aytishadi, chunki bunga o‘xshash iboralar o‘sha oyatlarda odamga nisbatan ishlatilgan. Bu olimlardan ba’zilarining sharhlashicha, mazkur ibora o‘ziga katta haramlar yaratgan, qudratli hukmdorlar bo‘lgan Lamexga o‘xshash (4:19 ga qarang) mag‘rur kishilarga ishora qiladi. Boshqa olimlarning ta’kidlashi bo‘yicha, bu oyatda Shisning avlodlari nazarda tutilgan. Shis Nuh payg‘ambarning, shuningdek, Xudo tanlagan Isroil xalqining bobokaloni edi. Bu nuqtayi nazarga binoan Shisning avlodlari Qobilning avlodiga mansub bo‘lgan ayollarga (“matnda chiroyli qizlar”, deb aytilgan)

uylangan va shu tufayli fosiq yo‘lga kirganlar (bu oyatga tegishli keyingi izohni o‘qing).

6:2 *bu qizlar* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *inson zotining qizlari* (shu bobning 4–oyatida ham bor). Ko‘p olimlarning sharhlashicha, bu ibroniycha ibora umuman ayollarga nisbatan ishlatilgan. Biroq olimlarning ba’zilari bu yerda aynan Qobilning avlodiga mansub bo‘lgan ayollar nazarda tutilgan, deb ta’kidlashadi (bu oyatga berilgan yuqoridagi izohni o‘qing). Xudo Qobilni la’natlagan edi (4:10-12 ga qarang).

6:3 *Ruh* — bu oyatda barcha jonzotga hayot ato etuvchi Xudoning hayotbaxsh qudrati nazarda tutilgan.

6:3 *Men ato etgan Ruh insonlar bilan abadiy qolmaydi…* — yoki *Mening Ruhim insonlar bilan abadiy kurashmaydi…*.

6:3 *…ular o‘ladigan jonlardir* — yoki *…ular yaramasdir*.

6:4 *ulkan pahlavonlar* — ibroniycha matnda *nefilim*. Bu so‘z haybatli va kuchli odamlarga nisbatan ishlatilgan (yana Sahroda 13:34 ga qarang). To‘fondan oldin yashagan Nefilimlar bu oyatda va mazkur bobning 2–oyatida tilga olingan ilohiy zotlar va ayol zotining avlodlari edilar.

6:4 *ayol zoti* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *inson zotining qizlari*. Shu bobning 2–oyatiga berilgan ikkinchi izohga qarang.

6:14 *Qattiq yog‘och* — ibroniycha matnda *gofer yog‘ochi*. Qanday turdagi yog‘och ekanligi noma’lum.

6:15 *…uzunligi 300 tirsak, kengligi 50 tirsak, balandligi 30 tirsak…* — uzunligi taxminan 135 metrga, kengligi taxminan 22,5 metrga, balandligi taxminan 13,5 metrga to‘g‘ri keladi.

6:16 *bir tirsak* — taxminan 45 santimetrga to‘g‘ri keladi.

6:16 *Kemaning tomini yasaganingda…ochiq joy qoldir* — yoki *Kemaning gir aylanasida, tomdan bir tirsak pastrog‘ida ochiq joy qoldir*.

7:2 *…halol hayvonlar…harom hayvonlar…* — bu oyatda Xudoga qurbonlik qilsa bo‘ladigan hayvonlarga nisbatan *halol hayvonlar* iborasi, qurbonlik qilishga yaramaydigan hayvonlarga nisbatan esa *harom hayvonlar* iborasi ishlatilgan (8:20 ga qarang). Halol va harom hayvonlar haqida to‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun Levilar 11:1-47 ga qarang.

7:11 *…yer ostidagi buloqlar otilib chiqdi…* — qadimda Isroil xalqining tasavvuriga ko‘ra, yer tep–tekis bo‘lib, yer ostida buyuk dengiz bor edi. Bu matnda o‘sha ulkan dengizning suvlari otilib chiqib, yer yuzini qoplagani nazarda tutilgan.

7:11 *…osmonning qopqalari ochildi* — tinmay jala quya boshladi. Qadimda Isroil xalqining tasavvuriga ko‘ra, osmon gumbaz shaklida bo‘lib, osmon qopqalari gumbaz ustidagi suvlardan yerni himoya qilib turar edi (1:6-8 oyatlarga va 1:7 izohiga qarang).

7:20 *o‘n besh tirsak* — taxminan 7 metrga to‘g‘ri keladi.

8:2 *Yer ostidagi buloqlar* — 7:11 ning birinchi izohiga qarang.

8:2 *osmonning qopqasi* — 7:11 ning ikkinchi izohiga qarang.

8:4 *Yettinchi oyning o‘n yettinchi kuni* — to‘fon boshlangandan besh oy o‘tgach (7:11 ga qarang).

8:5 *o‘ninchi oyning birinchi kuni* — to‘fon boshlangandan taxminan yetti yarim oy o‘tgach (7:11 ga qarang).

8:13 *birinchi oyning birinchi kuni* — to‘fon boshlangandan taxminan o‘n yarim oy o‘tgach (7:11 ga qarang).

8:14 *ikkinchi oyning yigirma yettinchi kuni* — to‘fon boshlangandan taxminan o‘n ikki yarim oy o‘tgach (7:11 ga qarang).

8:20 *...halol hayvon...halol qush...* — 7:2 izohiga qarang.

9:13 *...O‘z kamalagim...* — bu oyatdagi hamda shu bobning 14, 16–oyatlaridagi ibroniycha so‘z *kamon* so‘zini ham bildiradi.

9:22 *...Xom otasining yalang‘och yotganini ko‘rdi...akalariga aytdi* — Xomning akalari otasini nihoyatda hurmat qilganlari uchun, uning yalang‘och tanasiga qaramaslikka harakat qilganlar (shu bobning 23–oyatiga qarang), Xom esa, akalaridan farqli ravishda, o‘z qilmishi bilan otasini sharmanda qildi.

9:24 *kenja o‘g‘li* — shu bobning 18–oyatida Nuhning o‘g‘illari Som, Xom va Yofas, deb ko‘rsatilgan. Ismlarning shu tartibda yozilishiga qaramay, bu hikoya ko‘rsatib turibdiki, Xom Nuhning kenja o‘g‘il ekan.

9:25 *Kan’on* — nimaga Nuh Xomning o‘rniga Kan’onni la’natladi? Ko‘p olimlarning sharhlashicha, Xomning bunday buzuq xulq–atvori o‘g‘li Kan’onning avlodlariga ham xos edi. Bu oyatda aytilgan bashorat kelajakda Kan’on avlodining boshiga tushadigan hukmni bildiradi (yana 15:16 ga va o‘sha oyatning ikkinchi izohiga qarang). Keyinchalik Kan’on xalqi axloqiy buzuqligi va butparastligi bilan tanilib, Kan’on yurtini bosib olgan Isroil xalqi tomonidan butunlay qirib tashlanadi (Isroil xalqi Somdan kelib chiqqan, shu bobning 26–oyatiga qarang). Ba’zi olimlarning ta’kidlashicha, Xom Nuhning kenja o‘g‘li bo‘lgani uchun, Nuh Xomning kenja o‘g‘li Kan’onni la’natlagan edi. Ba’zi olimlar esa, Xudo yaqindagina Xomni barakalagani uchun (9:1 ga qarang) Nuh o‘g‘lini la’natlay olmay, Xomning o‘g‘lini la’natlagan edi, deb ta’kidlashadi.

9:25 *...akalariga* — Som va Yofasga yoki ularning avlodlariga.

9:27 *Xudo Yofasga mo‘l yer bersin...* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *Xudo Yofasni kengaytirsin...*. Yofas ibroniychadagi *kengaytirmoq* so‘ziga ohangdosh.

10:1 *Ularning nasl–nasabi va ulardan kelib chiqqan xalqlar...* — bu ro‘yxatda berilgan nomlarning ba’zilari Som, Xom va Yofas avlodidan kelib chiqqan ma’lum insonlarga, ba’zi nomlar esa ulardan kelib chiqqan xalqlarga tegishlidir. Ro‘yxatda xalqlar o‘rnashgan yurtlarning nomlari ham keltirilgan.

10:4 *Ro‘don* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Do‘don*. Uning Ro‘don degan shakli 1 Solnomalar 1:7 dan olingan.

10:5 *Ular* — shu bobning 2-4–oyatlarida aytib o‘tilgan Yofasning nasli nazarda tutilgan. Ba’zi tarjimalar *Yofasning nasli ana shulardan iborat edi* degan iborani gapning boshiga qo‘shadi, chunki shunga o‘xshash gap shu bobning 20, 31–oyatlarida ishlatilgan. Ibroniycha matnda aynan shu ma’no nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin.

10:6 *Kush* — Misrdan janubda o‘rnashgan xalqning bobokaloni edi. Ibroniycha matndagi bu so‘z odatda *Habashiston* deb tarjima qilinadi. Qadimgi Habashiston hududi hozirgi Sudan va Efiopiya mamlakatlarining ba’zi qismlarini o‘z ichiga olgan.

10:6 *Mizra* — Misr xalqining bobokaloni edi. Ibroniycha matndagi bu so‘z odatda Misr deb tarjima qilinadi.

10:10 *Shinar yeri* — Mesopotamiyadagi, ya’ni Dajla va Furot daryolari orasida joylashgan yerlardagi bir hududning qadimgi nomi. Keyinchalik bu hududda Bobil shohligi barpo bo‘lgan.

10:10 *...shaharlarining hammasini...* — yoki *...Kalney shaharlarini....*

10:11 *Nimro‘d o‘sha yerdan Ossuriyaga borib...* — yoki *Oshur o‘sha yerdan chiqib...* (Oshur Ossuriya xalqining bobokaloni edi).

10:11 *Naynavo* — Nineviya nomi bilan ham ma’lum.

10:14 *Kasluvdan Filist xalqi kelib chiqdi* — ibroniycha matndan. Eski Ahdning ba’zi joylarida, Filist xalqi Xafto‘rdan kelib chiqqan, deb yozilgan (Yeremiyo 47:4, Amos 9:7 ga qarang). Shu bois, ba’zi tarjimalarda Kasluv o‘rniga Xafto‘r so‘zi ishlatilib *Xafto‘rdan Filist xalqi kelib chiqdi* deb aytilgan. Oyatdan ko‘rinib turibdiki, Kasluv va Xafto‘r qondosh xalqlar bo‘lgan. Filistlar Kasluv xalqi istiqomat qilgan yerlardan kelib chiqib, keyinchalik Xafto‘rda, ya’ni hozirgi Krit orolida o‘rnashgan bo‘lishlari mumkin. Kasluv xalqi haqida deyarli hech qanday ma’lumot saqlanib qolmagan.

10:21 *Ibir* — ehtimol, *ibroniy* so‘zi shu so‘zdan hosil bo‘lgan. *Ibroniy* so‘zi millat ma’nosida dastlab Ibrohimga va uning nasliga nisbatan qo‘llanilgan (14:13, 39:14,17, 40:15, 41:12, 43:32 ga qarang).

10:23 *Meshex* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Mash*. Uning Meshex degan shakli 1 Solnomalar 1:17 dan olingan.

10:24 *Arpaxshodning Shilax degan o‘g‘li...* — aslida Shilax Arpaxshodning nabirasi edi (Luqo 3:35-36 ga qarang). Ibroniychada *o‘g‘il* so‘zi *nasl* ma’nosida ham ishlatiladi.

10:25 *...Palax...davrida dunyo bo‘linib ketdi* — ibroniychada Palax ismining ma’nosi — *bo‘linib ketdi*. Bu gapda Xudo insoniyatni turli millat va tillarga bo‘lgani, ularni butun yer yuzi bo‘ylab tarqatib yuborgani nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin (Ibtido 11:1-9 ga qarang). *Palax* so‘zining o‘zagi bo‘lgan ibroniycha fe’l Zabur 54:10 da ishlatilgan. O‘sha oyatda sano ijodkori Xudodan dushmanlarning gapini chalkashtirishni (ya’ni bo‘lib tashlashni) so‘ragan.

11:2 *sharqdan* — yoki *sharqqa*.

11:2 *Shinar yeri* — 10:10 ning birinchi izohiga qarang.

11:9 *Bobil* — bu nom ibroniychadagi *chalkashtirib yuborilgan* so‘ziga ohangdosh.

11:10 *...o‘g‘li...ko‘rgan edi* — bu oyatda hamda shu bobning 11-25–oyatlarida ishlatilgan bu ibroniycha jumla *uning naslida...tug‘ilgan edi* degan ma’noni ham anglatishi mumkin (5:3 izohiga qarang).

11:12 *Arpaxshod...o‘g‘li Shilaxni ko‘rgan edi* — 10:24 izohiga qarang.

11:26 *Ibrom* — Ibrohimning avvalgi ismi. Keyinchalik Xudo uning ismini Ibrohim deb o‘zgartirdi (17:3-5 ga qarang).

11:28 *Xaldeydagi Ur shahri* — Xaldey hozirgi Iroqning janubida, Fors qo‘ltig‘ining shimolida joylashgan yerlar edi. Ur shahri Mesopotamiyadan, ya’ni Dajla va Furot daryolari orasidagi hududdan O‘rta yer dengiziga boradigan asosiy savdo yo‘llari ustida joylashgan edi.

11:29 *Soray* — Soraning avvalgi ismi. Keyinchalik Xudo uning ismini Sora deb o‘zgartirdi (17:15 ga qarang).

11:31 *Xoron shahri* — Ur shahridan qariyb 900 kilometr shimoli–g‘arbda, hozirgi Turkiyaning janubi–sharqida joylashgan (yana shu bobning 28–oyati izohiga qarang).

12:1 *Ibrom* — 11:26 izohiga qarang.

12:4 *Xoron* — 11:31 izohiga qarang.

12:5 *Soray* — 11:29 izohiga qarang.

12:6 *Shakam* — Quddusdan qariyb 50 kilometr shimolda joylashgan shahar.

12:6 *eman daraxti* — yoki *terebint daraxti*, o‘sha o‘lkalarga xos bo‘lgan ulkan daraxt. Ko‘pincha bunday ulkan daraxtlar ma’lum bir joy belgisi sifatida ishlatilib, muhim diniy marosimlar bilan chambarchas bog‘liq edi.

12:8 *Baytil bilan Ay shaharlarining o‘rtasida…* — Baytil Quddusdan qariyb 19 kilometr shimolda, Ay shahri esa Baytildan qariyb 3 kilometr sharqda joylashgan.

12:9 *Nagav cho‘li* — hozirgi Isroilning janubida, O‘lik dengizning janubi–g‘arbida joylashgan yerlar.

13:1 *Ibrom* — 11:26 izohiga qarang.

13:1 *Nagav cho‘li* — 12:9 izohiga qarang.

13:3 *…Baytil bilan Ay oralig‘iga…* — 12:8 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

13:10 *…Egamiz yaratgan boqqa…* — Adan bog‘iga ishora.

13:18 *Xevron* — Quddusdan qariyb 32 kilometr janubi–g‘arbda joylashgan shahar.

13:18 *emanzor* — yoki *terebintzor*. 12:6 ning ikkinchi izohiga qarang.

14:1 *Shinar* — 10:10 ning birinchi izohiga qarang.

14:3 *O‘lik dengiz* — ibroniycha matnda *Tuz dengizi*.

14:6 *Seir* — keyinchalik bu joy Edom deb atalgan.

14:5-6 *…Rafa xalqi…Zuz xalqi…Eyim xalqi…*[6]*…Xorim xalqi…* — bu xalqlar yashagan yurtlar — Iordan daryosining sharqida istiqomat qilgan Rafa xalqining yurtidan to O‘lik dengizning janubi–g‘arbida istiqomat qilgan Xorim xalqining yurtigacha cho‘zilgan edi. Rafa va Eyim xalqlari gavdasi ulkan, kuchli jangchilari bilan mashhur edilar (Qonunlar 2:10-11, 20-21, 3:11 ga qarang).

14:8-9 *Siddim vodiysi* — ya’ni O‘lik dengiz vodiysi (shu bobning 3–oyatiga qarang).

14:12 *Ibrom* — 11:26 izohiga qarang.

14:13 *emanzor* — yoki *terebintzor*. 13:18 oyatga va 12:6 ning ikkinchi izohiga qarang.

14:13 *ukalari* — yoki *qarindoshlari*.

14:14 *Dan shahri* — Jalila ko‘lidan qariyb 40 kilometr shimolda joylashgan.

14:17 *Shoh soyligi* — Qidron soyligining bir qismi bo‘lib, Quddus shahridan janubi–sharqda joylashgan.

14:18 *Salim* — Quddusning qadimgi nomi.

14:19 *yaratgan* — yoki *ega bo‘lgan.*

15:1 *Ibrom* — 11:26 izohiga qarang.

15:7 *Xaldeydagi Ur shahri* — 11:28 izohiga qarang.

15:16 *...to‘rt avlod o‘tgandan keyin...* — mana bu so‘zlar shu bobning 13–oyatida aytib o‘tilgan to‘rt yuz yilga ishora qilishning boshqa bir uslubi.

15:16 *...chunki Amor xalqlarining qabihligi hali haddan oshmadi* — Eski Ahdning ba’zi joylarida Kan’on yurtida istiqomat qilgan barcha xalqlarga nisbatan Amor xalqlari degan nom ishlatilgan. Keyinchalik Xudo Isroil xalqi orqali Kan’on aholisini qilgan qabihliklari uchun jazolaydi, biroq jazolashning vaqt–soati hali yetib kelmagan edi (yana 9:25 ga va o‘sha oyatning birinchi izohiga qarang).

15:17 *...ichidan tutun chiqib turgan tog‘orani va yonayotgan mash’alani ko‘rdi...bo‘g‘izlangan hayvon bo‘laklari orasidan o‘tdi* — tutun va olov Egamizning o‘sha yerda zohir bo‘lganini anglatadi. Bo‘g‘izlangan hayvon bo‘laklarining ma’nosi bahsli. Ba’zi olimlarning taxmini bo‘yicha, hayvonlarning bo‘laklanishi biror kishining ont ichib, va’da berishga aloqador bo‘lgan urf–odat. Ikkiga bo‘lingan hayvonlarning orasidan o‘tadigan odam: “Agar o‘z va’damda turmasam, men ham mana shu hayvonlarday bo‘laklanay”, deb ont ichayotganday bo‘ladi. Boshqa olimlarning taxmini bo‘yicha esa, bu hayvonlar Ibrohimning avlodi bo‘lgan Isroil xalqining timsoli. Xudo ikkiga bo‘laklangan hayvonlarning orasidan o‘tib, Ibrohimning avlodi bilan birga bo‘lishini va’da qiladi. Xudo ularni Misrga o‘xshagan qudratli ajnabiy shohliklardan asraydi. Ibrohimning quzg‘unlarni haydashi mana shuning ramzidir (shu bobning 11-14–oyatlariga qarang).

15:18 *Misrdagi daryo* — Sinay yarim orolining shimoli–sharqidagi Arish soyligi yoki Nil daryosining sharqiy irmog‘i nazarda tutilgan (yana Sahroda 34:5 va Yoshua 13:3, 15:4, 47 ga qarang).

16:1 *Ibrom* — 11:26 izohiga qarang.

16:1 *Soray* — 11:29 izohiga qarang.

16:2 *...u orqali farzandli bo‘larman* — qadimgi paytlarda farzand ko‘ra olmagan xotin eriga o‘z cho‘rilaridan birini xotinlikka berishi odat edi. Cho‘ridan tug‘ilgan bolalar bekasining bolalari hisoblanar edi.

16:3 *xotin* — Hojar Ibromning cho‘ri xotini bo‘lib, uning oiladagi o‘rni Soraynikidan ancha past edi. Agar Hojar Ibromga merosxo‘r tug‘ib bersa, boshqalarning nazarida u asosiy xotinga aylanar edi.

16:5 *Bularning hammasiga siz aybdorsiz!* — yoki *Menga qilingan bunday nohaqlik uchun boshingiz balodan chiqmasin*.

16:7 *Shur* — Misrning sharqiy chegarasidagi joy. Hojar Misrlik edi (shu bobning 1–oyatiga qarang).

16:11 *Ismoil* — ibroniychadagi ma’nosi *Xudo eshitadi* yoki *Xudo eshitsin*.

16:12 *…Qarindoshlari bilan dushman bo‘lib yashagay* — yoki *…Qarindoshlaridan bo‘lak bo‘lib yashagay* yoxud *…Qarindoshlaridan sharqda yashagay*.

16:13 *“Meni ko‘radigan Xudoni ko‘rdim–a!”* — yoki *“Nahotki Xudoni ko‘rganimdan keyin tirik qolgan bo‘lsam!”*

16:13 *“Meni ko‘radigan Xudosan”* — yoki *“Men ko‘rgan Xudo Sensan”*.

16:14 *Ber–Laxay–Ruy* — ibroniychadagi ma’nosi *meni ko‘rib turgan tirik Xudoning qudug‘i*.

17:1 *Ibrom* — 11:26 izohiga qarang.

17:5 *…Ibrom…Ibrohim…* — ibroniychada Ibrom ismining ma’nosi — *ulug‘ ota*, Ibrohim ismining ma’nosi esa — *ko‘pchilikning otasi*.

17:15 *…Soray…Sora…* — ibroniychada bu ikkala ismning ma’nosi — *malika*, lekin Xudo bu oyatda Sorayning ismini o‘zgartirib, kelajakda amalga oshirmoqchi bo‘lgan va’dasiga urg‘u beradi (shu bobning 16–oyatiga qarang). Sora deb talaffuz qilinadigan bu ism Sorayga Xudoning bergan va’dasini doimo eslatib turardi.

17:19 *Is’hoq* — ibroniychadagi ma’nosi *kuladi*.

18:1 *emanzor* — yoki *terebintzor*. 13:18 oyatga va 12:6 ning ikkinchi izohiga qarang.

18:3 *Hazratim* — Ibrohim o‘sha uch odamning birini yo‘lboshchi sifatida tan oldi.

18:6 *bir tog‘ora* — ibroniycha matnda *uch sexa*, taxminan 22 kiloga to‘g‘ri keladi.

18:10 *Ulardan biri* — ibroniycha matnda *U*, kelgan uch odamning yo‘lboshchisi nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin (shu bobning 3–oyatiga va o‘sha oyatning izohiga qarang).

18:10 *…kelgusi yili shu paytda…* — yoki *…to‘qqiz oydan keyin…* yoxud *…kelgusi bahor…*. Shu bobning 14–oyatida ham bor.

18:13 *Egamiz* — Ibrohimnikiga odam ko‘rinishida kelgan mehmonlarning biri Egamiz ekanligi bu oyatda aniq ko‘rsatilgan (shu bobning 1, 3, 10–oyatlariga qarang). Shu paytgacha Ibrohim bundan bexabar edi. Qolgan ikkita mehmon farishtalar edi (shu bobning 22–oyatiga va 19:1 ga qarang).

19:1 *ikkala farishta* — Ibrohimga odam ko‘rinishida zohir bo‘lgan ikkala mehmon (18:22 ga qarang).

19:1 *…darvozasi yonida…* — qadimgi paytlarda odamlar savdo–sotiq, ijtimoiy va huquqiy masalalarni hal qilish uchun shahar darvozasi yonida yig‘ilishardi.

19:3 *non* — ibroniycha matnda *xamirturushsiz non*, kutilmagan mehmon kelib qolganda tez tayyorlanadigan nonning turi.

19:22 *Zo‘var* — bu nom ibroniychadagi *kichkina* so‘ziga ohangdosh.

19:37 *Mo‘ab* — bu ism ibroniychadagi *otamdan* so‘ziga ohangdosh.

19:38 *Banommi* — bu ism ibroniychadagi *qarindoshimning o‘g‘li* so‘ziga ohangdosh.

20:1 *Nagav cho‘li* — 12:9 izohiga qarang.

20:1 *Garor* — Kan’onning janubi–g‘arbidagi shahar, O‘lik dengizdan qariyb 80 kilometr g‘arbda joylashgan.

20:16 *ming bo‘lak kumush* — taxminan 11 kiloga to‘g‘ri keladi. Qadimgi paytlarda

ma’lum vazndagi kumush bo‘laklari odatda pul sifatida ishlatilgan.

20:16 *Bu kumushlar…pokligingni isbotlaydi* — Abumalek shunchalik mo‘l in’om berib, boshqalarga Sorayning nomusiga tegmaganligini ko‘rsatmoqchi.

21:4 *Xudo amr qilganday…uni sunnat qildi* — 17:9-14 ga qarang.

21:6 *kulgi* — ibroniychada Is’hoq ismining ma’nosi — *kuladi* (yana 17:15-21, 18:10-15 ga qarang).

21:8 *…Sora uni ko‘krakdan chiqardi…Ibrohim katta ziyofat berdi* — qadimgi paytlarda bolalar 2-3 yoshgacha emizilar edi. Ko‘p bolalar emizikli davrda qazo qilgani uchun ko‘krakdan chiqarilish payti katta bayram qilib nishonlanar edi.

21:9 *Ismoil* — 16:1-6 ga qarang.

21:9 *Is’hoq* — qadimiy yunoncha va lotincha tarjimalardan. Ibroniycha matnda *Is’hoq* so‘zi qo‘llanmagan bo‘lsa ham, lekin nazarda tutilgan.

21:9 *…Is’hoqni masxara qilayotganini…* — yoki *…Is’hoq bilan o‘ynayotganini…*.

21:10 *Cho‘rining o‘g‘li mening o‘g‘lim bilan merosxo‘r bo‘lmasin* — Ibrohim Ismoilni o‘z o‘g‘li sifatida qabul qilgani uchun, Ismoil Ibrohim mulkining bir qismiga merosxo‘r bo‘lish huquqiga ega edi. Ammo Ismoilning onasi Hojar ozodlikka chiqsa, Ismoil meros olish huquqidan mahrum bo‘lardi.

21:16 *bir o‘q otimi* — taxminan 100 metrga to‘g‘ri keladi.

21:20 *Poron cho‘li* — Sinay yarim orolining shimoli–sharqida joylashgan.

21:22 *Abumalek* — 20:2 ga qarang.

21:30 *…bu quduqni o‘zim qaziganimni bular isbotlaydi* — Ibrohim bu in’omni berib, haqiqatni aytayotganini ko‘rsatmoqchi. In’omni qabul qilish orqali Abumalek quduq haqiqatan Ibrohimga tegishli ekanini tan oldi. Abumalek ham ilgariroq o‘zining haqligini isbotlash uchun shunday yo‘l tutgan edi (20:16 ga qarang).

21:31 *Bersheba* — ibroniychadagi ma’nosi *qasamyod qudug‘i* yoki *yettilar qudug‘i*. Bu ikkala ma’no ham bu o‘rindagi vaziyatga, ya’ni Ibrohimning Abumalekka yettita urg‘ochi qo‘zini berishiga va Ibrohim bilan Abumalekning qasamyod qilishiga to‘g‘ri keladi.

21:33 *yulg‘un daraxti* — tez o‘sadigan mayda bargli daraxt. Bu daraxtlar issiq va quruq joylarda o‘sadi.

22:2 *Moriyox yeri* — keyinchalik shoh Sulaymon Ma’badni qurgan joy Moriyox tog‘i deb ataladi (2 Solnomalar 3:1 ga qarang). Demak, Ibrohim Is’hoqni Egamizga qurbonlik qilish uchun olib borgan tog‘ ustida keyinchalik Ma’bad qurilgan bo‘lishi ham mumkin. Shu bobning 14–oyatidagi *Egamizning tog‘i* iborasi Isroil shohlari davrida Ma’bad turgan toqqa nisbatan ishlatilgan.

22:8 *…Xudoning O‘zi beradi…* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *…Xudoning O‘zi ko‘rib beradi…*, ya’ni Xudo vaziyatni ko‘rib turib, kerakli hamma narsani O‘zi yetkazib beradi degan ma’noni anglatadi.

22:14 *“Egamiz beradi”* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *Egamiz ko‘rib turibdi* (shu bobning 8–oyatiga va o‘sha oyatning izohiga qarang).

22:14 *bugungi kunda* — shu kitob yozilgan vaqtga ishora.

22:14 *Egamizning tog‘i* — shu bobning 2–oyati izohiga qarang.

22:14 *…beriladi…* — yoki *…U zohir bo‘ladi….*

22:16 *…O‘zimning nomim bilan qasamyod qilaman…* — qadimgi Yaqin Sharqda odamlar aytgan gapini tasdiqlash uchun, o‘zlaridan buyukroq zot nomini yoki narsani o‘rtaga qo‘yib qasam ichishar edi. Xudo borliqdagi eng buyuk Zot bo‘lgani uchun, U aytgan so‘zining qat’iy ekanligini ko‘rsatish maqsadida O‘z nomini o‘rtaga qo‘yib qasam ichdi.

22:24 *cho‘ri* — ibroniycha matnda bu so‘zning ma’nosi quyidagicha: cho‘ri bo‘lgan ayollar qonuniy xotin bo‘lmasalar–da, xo‘jayinlari ular bilan jinsiy aloqada bo‘lishgan. Qadimgi paytlarda bu ayollarning jiddiy qonuniy huquqlari bo‘lib, xo‘jayinlari ularning erlari sifatida bo‘lgan.

23:3 *Xet xalqi* — ibroniycha matnda *Xet nasli* (shu bobning 5, 7, 10, 16, 18, 20–oyatlarida ham bor). 10:15 ga qarang.

23:10 *…shahar darvozasida…* — 19:1 ning ikkinchi izohiga qarang.

23:14-15 *to‘rt yuz bo‘lak kumush* — ibroniycha matnda *to‘rt yuz shaqal kumush*, taxminan 4,5 kiloga to‘g‘ri keladi. Qadimgi paytlarda ma’lum vazndagi kumush bo‘laklari odatda pul birligi sifatida ishlatilgan.

24:2 *Qo‘lingni sonimning ostiga qo‘yib…* — qasamning tabarrukligi va muhimligini bildiruvchi ramziy harakat.

24:10 *Oram–Naxrayim* — ibroniychadagi ma’nosi *Ikki daryoning Orami* demakdir. Bu hudud Furot daryosi bo‘yida joylashgan bo‘lib, hozirgi Suriya mamlakatining shimoliy qismini va hozirgi Turkiyaning janubi–sharqiy qismini qamrab olardi. Oram–Naxrayim yana Paddon–Oram (25:20 ga qarang) va Paddon (48:7 ga qarang) nomlari bilan tanilgan.

24:22 *…burunga taqiladigan oltin sirg‘ani…* — ayollar burunga taqiladigan sirg‘alarni bezak sifatida ishlatishar edi (yana shu bobning 47–oyatiga qarang).

24:22 *bir misqoldan ortiq* — ibroniycha matnda *bir biqo*, taxminan 6 grammga to‘g‘ri keladi.

24:22 *yigirma besh misqol* — ibroniycha matnda *o‘n shaqal*, taxminan 110 grammga to‘g‘ri keladi.

24:62 *Nagav cho‘li* — 12:9 izohiga qarang.

24:62 *Ber–Laxay–Ruy qudug‘i* — 16:7-14 oyatlarga va 16:14 izohiga qarang.

24:63 *…sayr qilish uchun…* — yoki *…ibodat qilish uchun….*

25:6 *cho‘rilar* — 22:24 izohiga qarang.

25:10 *Xet xalqi* — ibroniycha matnda *Xet nasli* (10:15 ga qarang).

25:10 *…xotini Soraning yoniga dafn qilindi* — 23:19 ga qarang.

25:11 *Ber–Laxay–Ruy qudug‘i* — 16:7-14 oyatlarga va 16:14 izohiga qarang.

25:18 *…qarindoshlariga dushman bo‘lib yashardilar* — yoki *…qarindoshlaridan bo‘lak bo‘lib yashardilar* yoxud *…qarindoshlaridan sharqda yashardilar* (16:12 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang).

25:20 *…Oramlik bo‘lib, Paddon–Oramdan…* — Paddon–Oram hududi Furot daryosi

bo‘yida joylashgan bo‘lib, hozirgi Suriya mamlakatining shimoliy qismini va hozirgi Turkiyaning janubi–sharqiy qismini qamrab olardi. Ibrohimning ayrim qarindoshlari shu hududda yashagan. Paddon–Oram yana Oram–Naxrayim (24:10 ga qarang) va Paddon (48:7 ga qarang) nomlari bilan tanilgan. O‘sha hududda istiqomat qilgan odamni Oramlik deb atashardi.

25:22 *“Agar shunaqa bo‘lsa…nima foydasi bor?!”* — yoki *“Agar shunaqa bo‘lsa yashab nima qilaman?!”* yoxud *“Nechun boshimga bunday ko‘rgilik tushdi?!”*

25:23 *…ikki xalqqa bo‘linar* — bu so‘z tug‘iladigan egizak va ulardan kelib chiqadigan xalqlar orasida bo‘ladigan to‘qnashuvga ishora qiladi. Bu to‘qnashuv ona qornidayoq boshlanib, hatto tug‘ilish paytida ham yuz beradi (shu bobning 22, 26–oyatlariga qarang).

25:25 *qip–qizil* — terining rangiga yoki sochi va badanidagi junning rangiga nisbatan ishlatilgan bo‘lishi mumkin. Esovni yana *Edom* deb atashar edi. Edom so‘zi ibroniychadagi *qizil* so‘ziga ohangdosh (shu bobning 30–oyatiga qarang).

25:25 *Uning tanasi jun matoga o‘xshardi…ismini Esov qo‘ydilar* — Esov ismi ibroniychadagi *junli* so‘ziga ohangdosh. Keyinchalik Esov nasli istiqomat qiladigan yerlar *Seir* deb atalgan. *Seir* so‘zining ibroniychadagi ma’nosi — *junli*.

25:26 *Esovning tovonini ushlab tug‘ildi…ismini Yoqub qo‘ydilar* — ibroniychada Yoqub ismining ma’nosi — *u tovonni ushlab oladi*. *U tovonni ushlab oladi* iborasining ko‘chma ma’nosi *u himoya qiladi* demakdir. *Yoqub* boshqa biron uzun ismning qisqa shakli bo‘lishi mumkin. O‘sha to‘liq ismning ma’nosi *Xudo uni himoya qilsin* yoki *Xudo uni himoya qildi*. Ammo *u tovonni ushlab oladi* iborasining *u aldadi* degan ko‘chma ma’nosi ham bor. Keyinchalik Esov Yoqubning ismini o‘sha iboraning ikkinchi ko‘chma ma’nosida ishlatadi (27:36 ga qarang), bu ma’no Yoqub hayotining ilk davrini aks ettiradi.

25:29 *yasmiq* — dukkaklilar oilasiga mansub o‘simlik doni.

25:30 *Edom* — bu ism ibroniychadagi *qizil* so‘ziga ohangdosh.

25:31 *to‘ng‘ichlik huquqi* — to‘ng‘ich o‘g‘ilning ukalariga qaraganda ikki barobar katta meros olishga haqi bor edi. Ota olamdan o‘tgandan keyin, to‘ng‘ich o‘g‘il oila boshi o‘rnini egallar edi.

26:1 *…bunday ocharchilik ilgari Ibrohim davrida ham yuz bergan edi* — 12:10 ga qarang.

26:1 *Abumalek* — 20:2, 21:22 ga qarang.

26:17 *soylik* — ikki adir oralig‘idagi pastlik. Ba’zi soyliklar vodiy kabi keng bo‘lardi. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi SOYLIK so‘ziga qarang.

26:20 *Janjal* — ibroniycha matnda *Esek*, ma’nosi *janjal*.

26:21 *Ziddiyat* — ibroniycha matnda *Sitno*, ma’nosi *ziddiyat*.

26:22 *Kenglik* — ibroniycha matnda *Rexobo‘t*, ma’nosi *kenglik*.

26:33 *Qasamyod* — ibroniycha matnda *Shiva*, ma’nosi *qasamyod* yoki *yetti*. Is’hoq bilan Abumalek bir–birlariga qasamyod qilganlari uchun bu o‘ringa *qasamyod* ma’nosi to‘g‘ri keladi (shu bobning 31–oyatiga qarang). Bordi–yu, Is’hoq otasi Ibrohimning Abumalek bilan xuddi o‘sha joyda qilgan qasamyodga ishora qilayotgan bo‘lsa, *yetti* ma’nosi to‘g‘ri

keladi, chunki Ibrohim qasamyod qilganda, Abumalekka yettita urg‘ochi qo‘zini bergan edi (21:29-31 oyatlarga va 21:30 izohiga qarang).

26:33 *Bersheba* — ibroniychadagi ma’nosi *qasamyod qudug‘i* yoki *yettilar qudug‘i*.

27:36 *Unga Yoqub deb ism qo‘yilgani bekorga emas ekan–da…U meni ikki marta aldadi–ya!* — 25:26 izohiga qarang.

27:36 *…to‘ng‘ichlik huquqimni olgan edi…* — 25:29-34 ga qarang.

27:43 *Xoron* — 11:31 izohiga qarang.

27:45 *…bir kunda akangdan ham, sendan ham ayrilib qolaman* — agar Esov Yoqubni o‘ldirganda edi, unga qotillik uchun o‘lim jazosi berilgan bo‘lardi, bunday holda Rivqo ikkala o‘g‘lidan ham ayrilardi.

27:46 *Xet* — ya’ni Xet xalqidan (10:15 ga qarang).

28:2 *Paddon–Oram* — 25:20 izohiga qarang.

28:5 *Oramlik* — Paddon–Oramda istiqomat qilgan odam (25:20 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang).

28:9 *Navayot* — Ismoilning to‘ng‘ich o‘g‘li (25:13 ga qarang).

28:10 *Xoron* — 11:31 izohiga qarang.

28:12 *zinapoya* — yoki *narvon* (shu bobning 13–oyatida ham bor).

28:13 *Zinapoyaning yonida…* — yoki *Yoqubning yonida…* yoxud *Zinapoyaning tepasida….*

28:19 *Baytil* — ibroniychadagi ma’nosi *Xudoning uyi*. Baytil Quddusdan qariyb 19 kilometr shimolda joylashgan.

29:4 *Xoron* — 11:31 izohiga qarang.

29:17 *chiroyli* — yoki *chaqnamagan*, ya’ni so‘nik.

29:32 *Ruben* — ibroniychadagi ma’nosi *Ko‘rib qo‘y, o‘g‘il!* Bu ismning ba’zi ohanglari ibroniychadagi *u mening baxtsizligimni ko‘rdi* va *menga ko‘ngil qo‘yadi* iboralarida ishlatilgan. Shu sababdan Leax o‘z o‘g‘liga Ruben deb ism qo‘ygan edi.

29:33 *Shimo‘n* — ibroniychadagi *eshitdi* so‘ziga ohangdosh, bu ismning ba’zi ohanglari ibroniychadagi *erim menga ko‘ngilsiz* iborasida ishlatilgan.

29:34 *Levi* — bu ism ibroniychadagi *bog‘lanib qoladi* so‘ziga ohangdosh.

29:35 *Yahudo* — bu ism ibroniychadagi *hamdu sano aytaman* so‘ziga ohangdosh.

30:3 *…toki cho‘rim orqali men ham bolali bo‘layin* — 16:2 izohiga qarang.

30:6 *Dan* — ibroniychadagi ma’nosi *hukm qildi*. Bu ism ibroniychadagi *oqladi* so‘ziga ohangdosh.

30:8 *Naftali* — bu ism ibroniychadagi *olishuv* so‘ziga ohangdosh.

30:11 *Gad* — ibroniychadagi ma’nosi *omad*.

30:13 *Osher* — ibroniychadagi ma’nosi *baxtli*.

30:14 *mehrigiyo o‘simligi* — qadimda odamlar, bu o‘simlikning mevalari jinsiy xohishni kuchaytirib, ayolning homilador bo‘lishiga imkoniyat yaratadi, deb ishonishardi.

30:18 *Issaxor* — bu ism ibroniychadagi *mukofot* so‘ziga ohangdosh.

30:20 *Zabulun* — bu ism ibroniychadagi *hurmat* va *hadya* so‘zlariga ohangdosh.

30:24 *Yusuf* — ibroniychadagi ma’nosi *yana bersin*. Bu ism ibroniychadagi *olib tashladi* so‘ziga ohangdosh.

30:27 *...fol ochtirib ko‘rgan edim, Egam menga sen tufayli baraka berganini bildim* — yoki *...men davlat orttirdim, Egam menga sen tufayli baraka berdi*.

30:30 *Men tufayli...baraka berdi* — yoki *Men siz uchun ishlagan hamma joyda Egam sizga baraka berdi*.

30:32 *...olachipor va xol–xol qo‘ylaringizni, qora qo‘zilaringizni, echkilaringizdan ham xol–xolini va olachiporini...* — dunyoning bu o‘lkalarida odatda qo‘ylar oq, echkilar esa qora rangda bo‘lar edi, qora dog‘li qo‘ylar va oq dog‘li echkilar kamdan–kam uchrar edi.

30:38 *So‘ngra...qo‘ydi* — qadimgi paytlarda odamlarning tushunchasi bo‘yicha, qo‘y–echkilarning juftlashgan paytda ko‘rgan narsasi ulardan tug‘iladigan qo‘zichoqlarning ko‘rinishiga ta’sir qilardi. Biroq Yoqub Xudo bergan baraka tufayli muvaffaqiyatga erishganini aniq bilar edi (31:5-13 ga qarang).

30:40 *...Lobonning boshqa qo‘y–echkilaridan sovliqlarini...* — Yoqub boqib yurgan Lobonning oq qo‘ylari va qora echkilaridan tashkil topgan suruvi nazarda tutilgan (shu bobning 35-36–oyatlariga qarang).

30:40 *...yo‘l–yo‘l va qop–qora hayvonlarga qaratib qo‘yardi. Shu tariqa Yoqub Lobonning qo‘y–echkilaridan o‘zining suruvini vujudga keltirdi...* — Lobonning suruvidagi yo‘l–yo‘l va qop–qora echkilar nazarda tutilgan (bu oyatda *yo‘l–yo‘l* deganda tuyoqlari ochroq rangda bo‘lgan qora echkilar nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin). Demak, Yoqub Lobonning juftlashayotgan oq qo‘ylarini qora echkilariga qaratib qo‘yar edi, buning natijasida qora qo‘zichoqlar tug‘ilardi (shu bobning 38–oyati izohiga qarang). Bu qora qo‘zichoqlar Yoqub suruvini tashkil qilardi (shu bobning 32-34–oyatlariga qarang). Shu usulni ishlatgan holda, Yoqub o‘zining katta suruvini vujudga keltirdi (shu bobning 37-40–oyatlariga qarang).

31:13 *Men Baytilda senga zohir bo‘lgan Xudoman* — 28:10-19 oyatlarga va 28:19 izohiga qarang.

31:15 *U bizni sotdi...hammasini sarf qilib bo‘ldi* — kelinning otasiga beriladigan qalin puli nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin. Odatda qalin pulining bir qismi qizning o‘ziga berilar edi. Yoqub Rohila va Leax uchun berishi kerak bo‘lgan qalin puli o‘rniga o‘n to‘rt yil davomida Lobonga xizmat qildi. O‘sha yillar davomida Lobon Yoqub tufayli ko‘p davlat orttirdi, lekin orttirgan davlatidan qizlariga hech narsa bermay, hammasini sarf qilib yuborgan edi.

31:17-18 *Paddon–Oram* — 25:20 izohiga qarang.

31:19 *xonaki xudolar* — ibroniycha matnda *terafim* (shu bobning 34, 35–oyatlarida ham bor). Odamlar xonaki xudolarni fol ochish uchun ishlatgan bo‘lsa kerak. Odamlar, xonaki xudolar xonadonni kulfatdan asraydi, deb ishongan bo‘lsa kerak. Ehtimol, Rohila, xudolar bizni safarda asraydi, deb ishongani uchun yoki o‘sha butlar shunchaki qimmatbaho buyum bo‘lgani uchun ularni o‘g‘irlab olgandir. Shu bobning 30, 32–oyatlarida xonaki xudolarga nisbatan ibroniycha so‘z *elohim* (ma’nosi *xudolar*) ishlatilgan.

31:20 *Lobon* — ibroniycha matnda *Oramlik Lobon* (shu bobning 24–oyatida ham bor). Oramlik — Paddon–Oramda istiqomat qilgan odam (25:20 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang).

31:21 *Gilad qirlari* — Iordan daryosining sharq tomonida joylashgan.

31:33 *ikkala cho‘ri* — Bilxax (29:29, 30:4 ga qarang) va Zilpo (29:23-24, 30:9 ga qarang) nazarda tutilgan.

31:42 *Is’hoq sajda qiladigan Xudo* — yoki *Is’hoqning haybatli Xudosi* yoxud *Is’hoqni asragan Xudo* (shu bobning 53–oyatida ham bor).

31:47 *...Yogar–Saduto...Galed...* — birinchi nom oramiycha, ikkinchi nom ibroniycha bo‘lib, ikkovi ham *guvohlik uyumi* demakdir.

31:49 *Mispax* — ibroniychadagi ma’nosi *qorovul minorasi*.

32:2 *Moxanayim* — ibroniychadagi ma’nosi *ikki qarorgoh*, Yoqubning va Xudoning qarorgohlari bu joyda ekanligi nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin (ammo shu bobning 7-10–oyatlariga ham qarang).

32:3 *...Seir, ya’ni Edom yurti...* — O‘lik dengizning janubida joylashgan. Edom yurtining yana bir nomi Seir edi.

32:22 *ikkala cho‘risi* — Bilxax (29:29, 30:4 ga qarang) va Zilpo (29:23-24, 30:9 ga qarang) nazarda tutilgan.

32:22 *Yavoq daryosi* — Iordan daryosining sharq tomonida joylashgan bu daryo O‘lik dengizdan qariyb 50 kilometr shimolda Iordan daryosiga quyiladi.

32:25 *bo‘ksa* — gavdaning bel bilan son o‘rtasidagi qismi.

32:28 *Isroil* — ibroniychadagi ma’nosi *Xudo olishadi*. Bu ism ibroniychadagi *olishding* so‘ziga ohangdosh.

32:30 *“Xudo bilan yuzma–yuz bo‘libman–u, hayotim saqlanib qolibdi–ya”* — insonlar, Xudoni ko‘rgan odam o‘ladi, deb ishonishardi (Chiqish 33:20 va Hakamlar 6:22, 13:22 ga qarang).

32:30 *Paniyol* — ibroniychadagi ma’nosi *Xudoning yuzi*. Paniyol Giladda, Iordan daryosining sharq tomonida joylashgan edi.

32:31 *Paniyol* — ibroniycha matnda bu nomning boshqa varianti *Panuval*.

32:32 *bugungacha* — shu kitob yozilgan vaqtga ishora.

33:1 *ikkala cho‘ri* — Bilxax (29:29, 30:4 ga qarang) va Zilpo (29:23-24, 30:9 ga qarang) nazarda tutilgan.

33:14 *Seir yurti* — 32:3 izohiga qarang.

33:17 *Suxot* — ibroniychadagi ma’nosi *qo‘ralar*.

33:18 *Paddon–Oram* — 25:20 izohiga qarang.

33:18 *Shakam shahri* — 12:6 ning birinchi izohiga qarang.

33:19 *yuz bo‘lak kumush* — ibroniycha matnda *yuz kisito*. Bu pul birligining qiymati va og‘irligi haqidagi ma’lumot saqlanib qolmagan. Qadimgi paytlarda ma’lum vazndagi kumush bo‘laklari odatda pul birligi sifatida ishlatilgan.

33:20 *“Xudo Isroilning Xudosidir”* — ibroniycha matnda *“El–Elohey–Isroil”*, ma’nosi *Xudo Isroilning Xudosidir*. Yoqub (ya’ni Isroil) o‘zining Xudoga tegishli ekanligini e’lon qilmoqda (28:20-21 ga qarang).

34:10 *…bemalol savdo–sotiq qilaverasizlar…* — yoki *…xohlagan joyingizga boraverasizlar…* (shu bobning 21–oyatida ham bor).

34:14 *Singlimizni…biz isnodga qolamiz* — 17:9-14 ga qarang.

34:17 *singlimiz* — ibroniycha matnda *qizimiz*, Dinaga ishora.

34:20 *…shahar darvozasiga…* — 19:1 ning ikkinchi izohiga qarang.

34:25 *…Dinaning akalari Shimo‘n bilan Levi…* — Shimo‘n bilan Levi Leaxdan tug‘ilgan bo‘lib, Dinaning tug‘ishgan akalari edi (29:33-34, 30:21 ga qarang).

35:1 *…Baytilga ko‘chib bor…Men u yerda senga zohir bo‘lgan edim* — 28:10-19 oyatlarga va 28:19 izohiga qarang.

35:4 *…xudolarini, ziraklarini…* — Shakamdan o‘lja qilib olingan narsalar bo‘lishi mumkin. Bu oyatda aytib o‘tilgan “xudolar” — kichkina haykalchalar shaklida bo‘lib, fol ochish yoki balo–qazolardan asrash uchun ishlatilgan bo‘lishi mumkin (yana 31:19 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang). Ziraklar ham irim qilib, yomonlikdan asrash uchun taqilgan bo‘lishi mumkin.

35:4 *Shakam yaqinidagi eman daraxti* — yoki *Shakam yaqinidagi terebint daraxti*. 12:6 ga va o‘sha oyatning izohlariga qarang.

35:7 *Baytilning Xudosi* — ibroniycha matnda *El–Baytil*, ma’nosi *Baytilning Xudosi*. Yana 33:20 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

35:8 *…Rivqoning enagasi Dobira vafot etdi* — Yoqub Paddon–Oramga ketgan paytdan (27:42-46 ga qarang) to shu paytgacha onasi Rivqo haqida hech qanday ma’lumot berilmagan. Shunday ekan, Yoqub Paddon–Oramda yashab yurgan paytlarda Rivqo olamdan o‘tgan, deb taxmin qilishimiz mumkin.

35:8 *Yig‘i daraxti* — ibroniycha matnda *Olo‘n–Bakut*, ma’nosi *yig‘i eman daraxti*.

35:9 *Paddon–Oram* — 25:20 izohiga qarang.

35:10 *Yoqub* — 25:26 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

35:10 *Isroil* — 32:22-30 oyatlarga va 32:28 izohiga qarang.

35:15 *Baytil* — 28:19 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

35:18 *…Beno‘n…Benyamin…* — ibroniychada Beno‘n ismining ma’nosi — *qayg‘umning o‘g‘li*, Benyamin ismining ma’nosi esa — *o‘ng qo‘limning o‘g‘li*. O‘ng qo‘l — muruvvat va baraka tomoni, deb hisoblangan. Rohila Yoqubning suyukli xotini bo‘lib, erining “o‘ng qo‘li” edi.

35:19 *Baytlahm* — Quddusdan qariyb 8 kilometr janubda joylashgan shahar.

35:20 *shu kungacha* — shu kitob yozilgan vaqtga ishora.

35:21 *Yoqub* — ibroniycha matnda *Isroil*, Yoqubning yana bir ismi (shu bobning 22–oyatida ham bor). 32:27-28 ga qarang.

35:22 *cho‘ri* — 22:24 izohiga qarang.

35:22 *…Ruben otasining choʻrisi Bilxaxning yoniga kirdi* — Ruben Leaxning toʻngʻich oʻgʻli, Bilxax esa Rohilaning choʻrisi edi (29:28-32 ga qarang). Marhum Rohila Yoqubning suyukli xotini boʻlgani bois, Bilxax uning oʻrnini egallamasin deb, Ruben bu ishga qoʻl urgan boʻlishi mumkin. Ruben bu qilmishi bilan Yoqubning oila boshligʻi sifatidagi oʻrnini egallamoqchi boʻlgani ham, ehtimoldan holi emas.

36:8 *Seir togʻlari* — 32:3 izohiga qarang.

36:12 *choʻri* — 22:24 izohiga qarang.

36:22 *Xoʻmam* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Xaman*. Uning Xoʻmam degan shakli 1 Solnomalar 1:39 dan olingan.

36:23 *Eliyon* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Elvon*. Uning Eliyon degan shakli 1 Solnomalar 1:40 dan olingan.

36:24 *issiq buloqlar* — yoki *buloq* yoxud *suv*.

36:37 *Furot daryosi* — ibroniycha matnda *daryo*, Furot daryosi nazarda tutilgan boʻlishi mumkin.

36:39 *Hadad* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Hadar*. Uning Hadad degan shakli 1 Solnomalar 1:50 dan olingan.

37:2 *Bilxax va Zilponing oʻgʻillari* — 30:1-13 ga qarang.

37:3 *Yoqub* — ibroniycha matnda *Isroil*, Yoqubning yana bir ismi (shu bobning 13–oyatida ham bor). 32:27-28 ga qarang.

37:3 *beqasam chopon* — yoki *chiroyli chopon* (shu bobning 23, 32–oyatlarida ham bor).

37:12 *Shakam* — 12:6 ning birinchi izohiga qarang.

37:17 *Doʻtan* — Shakamdan qariyb 25 kilometr shimolda joylashgan.

37:25 *mirra* — ma’lum bir daraxtlarning qotgan yelimidan tayyorlangan xushboʻy modda.

37:28 *Ismoiliy* — ibroniycha matnda *Midiyon naslidan kelib chiqqan* (shu bobning 36–oyatida ham bor). Ismoil va Midiyon xalqlari Ibrohimning ikkita oʻgʻlidan kelib chiqqanlar (25:1-2, 12 ga qarang). Bu xalqlar yaqin qarindosh boʻlganlari uchun, ularning ikkalovini ham ba’zan Midiyon xalqi, ba’zan esa Ismoil xalqi deb atashardi.

37:28 *yigirma boʻlak kumush* — taxminan 230 grammga toʻgʻri keladi. Qadimgi paytlarda ma’lum vazndagi kumush boʻlaklari odatda pul birligi sifatida ishlatilgan.

37:34 *…qaygʻudan kiyimlarini yirtib, qanorga oʻrandi* — qanor dagʻal qoramtir mato boʻlib, echki yoki tuya junidan toʻqilgan. Kiyimlarni yirtish va qanorga oʻranib olish umidsizlikni va qaygʻuli holatni ifodalaydi.

37:35 *Oʻliklar diyori* — ibroniycha matnda *Sheoʻl*. Qadimgi paytlarda odamlar *Sheoʻl*ni yer ostidagi tubsiz chuqurlik, marhumlar boradigan qorongʻi joy deb tushunardi.

38:1 *Adullam shahri* — Kan’ondagi shahar, Xevrondan qariyb 16 kilometr shimoli–sharqda joylashgan. Yoqub va uning oilasi bu paytda Xevronda istiqomat qilardi (35:27, 37:1 ga qarang).

38:8 *Sen akangning xotiniga uylanib…toki akangga zurriyot qolsin* — oʻsha davrdagi urf–odatga koʻra, odam farzand koʻrmasdan vafot etgan boʻlsa, marhumning aka–ukalaridan

yoki eng yaqin urug‘laridan biri uning naslini davom ettirish maqsadida beva qolgan xotinni olishi kerak edi. Ulardan tug‘ilgan bolalar o‘lgan odamniki hisoblangan. Shu tariqa marhumning nomi davom etavergan. Bu odat keyinchalik qonun sifatida Tavrotga kiritilgan (Qonunlar 25:5-10 ga qarang).

38:9 *...akamga zurriyot qolmasin...* — o‘sha davrdagi odatga ko‘ra, agar O‘nanning marhum akasi farzandsiz qolsa, G‘urning merosi O‘nan va uning ukasiga o‘tar edi. Bordi–yu, Tamara O‘nandan farzand ko‘rganda, o‘sha farzand G‘urning merosxo‘ri bo‘lardi. Bu odat keyinchalik qonun sifatida Tavrotga kiritilgan (Sahroda 27:8-11 ga qarang).

38:14 *...shahri darvozasi yonida...* — 19:1 ning ikkinchi izohiga qarang.

38:18 *...muhringizni...tayog‘ingizni...* — bu narsalar tufayli Tamara u bilan yotgan kishi Yahudo ekanini aniq isbotlay olardi.

38:21 *fohisha* — bu oyatdagi va mazkur bobning 22–oyatidagi ibroniycha so‘zning ma’nosi *sajdagohdagi fohisha*. Aslida Tamara sajdagoh fohishasi emasdi. Kan’onda sajdagoh fohishalari oddiy fohishalarga qaraganda jamiyatda yuqoriroq o‘rin tutar edilar. Shu bois Yahudoning do‘sti Xirax Tamarani kamsitib yubormaslik uchun unga nisbatan *sajdagohdagi fohisha* iborasini ishlatgan. Kan’ondagi odatga ko‘ra, odamlar sajdagohlardagi fohishalar bilan jinsiy aloqa qilganlarida, shu yo‘l bilan Kan’ondagi xalqlar xudolariga topinib, farovonlik ato qilishni so‘rardilar.

38:29 *Paraz* — ibroniychadagi ma’nosi *yorib chiqmoq*.

38:30 *Zerax* — bu ism ibroniychadagi *shafaqday qizil* so‘ziga ohangdosh, chaqaloqning qo‘lidagi qizil ip nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin.

40:1 *soqiy* — shohga o‘z qo‘li bilan sharob quyadigan, saroyda yuqori martabaga ega bo‘lgan, ishonchga loyiq a’yon. Shuningdek, u shoh uchun sharob tanlashi va uni tatib ko‘rib, zaharli emasligiga ishonch hosil qilishi kerak edi.

41:9 *soqiy* — 40:1 izohiga qarang.

41:45 *On shahri* — Geliopol nomi bilan ham ma’lum bo‘lib, hozirgi Qohiradan qariyb 11 kilometr shimoli–sharqda, Nil daryosi bo‘yida joylashgan.

41:51 *Manashe* — bu ism ibroniychadagi *esimdan chiqarmoq* so‘ziga ohangdosh.

41:52 *Efrayim* — bu ism ibroniychadagi *barakali* so‘ziga ohangdosh.

42:5 *Yoqub* — ibroniycha matnda *Isroil*, Yoqubning yana bir ismi (32:27-28 ga qarang).

42:25 *kumushlar* — Yusufning akalari don sotib olish uchun olib kelgan pul nazarda tutilgan. Qadimgi paytlarda ma’lum vazndagi kumush bo‘laklari odatda pul birligi sifatida ishlatilgan.

42:34 *Sizlar don sotib olgani tez–tez kelib turaverasizlar* — yoki *Yurtning xohlagan joyiga bemalol boraverasizlar*.

42:38 *...o‘zi yolg‘iz qoldi* — Yoqub, o‘g‘li Yusufni o‘lgan, deb hisoblagani uchun, suyukli xotini Rohiladan tug‘ilgan ikki o‘g‘ildan Benyamin yolg‘iz qoldi, deb aytgan.

42:38 *o‘liklar diyori* — ibroniycha matnda *Sheo‘l*. 37:35 izohiga qarang.

43:6 *Yoqub* — ibroniycha matnda *Isroil*, Yoqubning yana bir ismi (shu bobning 11–

oyatida ham bor). 32:27-28 ga qarang.

43:11 *Mirra* — 37:25 izohiga qarang.

44:5 *Xo‘jayinimning kumush qadahini o‘g‘irlaganingiz nimasi?* — qadimiy yunoncha va lotincha tarjimalardan. Ibroniycha matnda bu jumla yo‘q.

44:5 *...fol ochish uchun foydalanardi...* — qadimgi paytlarda fol ochish uchun turli xil suyuqliklardan foydalanilardi. Yusufning o‘zi bunday udumlarga ergashmagan bo‘lsa–da, uning xizmatkori qadahni qimmatbaho deb bilar edi, chunki bunday qadahlar xudolardan maslahat so‘rash uchun ishlatilardi.

44:29 *o‘liklar diyori* — ibroniycha matnda *Sheo‘l* (shu bobning 31–oyatida ham bor). 37:35 izohiga qarang.

45:10 *Go‘shen yerlari* — Nil deltasining sharqidagi hosildor yerlar.

45:21 *Yoqub* — ibroniycha matnda *Isroil*, Yoqubning yana bir ismi (shu bobning 28–oyatida ham bor). 32:27-28 ga qarang.

45:22 *uch yuz bo‘lak kumush* — taxminan 3,5 kiloga to‘g‘ri keladi. Qadimgi paytlarda ma’lum vazndagi kumush bo‘laklari odatda pul birligi sifatida ishlatilgan.

45:24 *...janjallashib yurmanglar...* — yoki *...xafa bo‘lmanglar...* yoxud *...qo‘rqmanglar...* (shu bobning 5–oyatiga qarang).

46:1 *Yoqub* — ibroniycha matnda *Isroil*, Yoqubning yana bir ismi (shu bobning 2, 30–oyatlarida ham bor). 32:27-28 ga qarang.

46:1 *Bersheba* — shu yerda Xudo Yoqubning otasi Is’hoqqa zohir bo‘lgan, Is’hoq Xudoga atab bir qurbongoh qurgan edi (26:23-25 ga qarang).

46:12 *...G‘ur va O‘nan Kan’on yurtida vafot etgan edilar* — 38:6-10 ga qarang.

46:13 *Yoshuv* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Yo‘v*. Uning Yoshuv degan shakli 1 Solnomalar 7:1 dan olingan (yana Sahroda 26:24 ga qarang).

46:15 *Paddon–Oram* — 25:20 izohiga qarang.

46:16 *Zafo‘n* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Zifiyon*. Uning Zafo‘n degan shakli Sahroda 26:15 dan olingan.

46:16 *Aro‘d* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Aro‘di*. Uning Aro‘d degan shakli Sahroda 26:17 dan olingan.

46:20 *On shahri* — 41:45 izohiga qarang.

46:26 *oltmish olti kishi* — shu bobning 8-25–oyatlaridagi ro‘yxatda jami yetmishta odam keltirilgan, aslida esa Misrga oltmish oltita odam kelgan edi. Ro‘yxatda aytib o‘tilgan G‘o‘r va O‘nan kelganlarning qatorida sanalmagan, chunki ular Kan’on yurtida vafot etganlar (shu bobning 12–oyatiga qarang). Yusuf, Manashe va Efrayim ham kelganlarning qatorida sanalmaganlar, ular allaqachon Misrda edilar. Dina ro‘yxatdagilarga qo‘shib sanalmagan, lekin kelganlar qatorida sanalgan (shu bobning 15–oyatiga qarang). Shunday qilib, Misrga oltmish olti kishi kelgan edi.

46:27 *yetmish kishi* — yetmish soniga shu bobning 8-25–oyatlarida aytib o‘tilgan ro‘yxatdagi yetmishta odam kiradi. Kan’on yurtida vafot etgan G‘ur va O‘nan Misrga kelganlarning orasida hisoblanmagan (shu bobning 12–oyatiga qarang), ularning

o‘rniga Yoqubning o‘zi va Dina qo‘shib hisoblangan (shu bobning 15–oyatiga qarang). Shunday qilib, hammasi yetmish kishi edi.

46:28 *Go‘shen yerlari* — 45:10 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

47:1-2 *Go‘shen yerlari* — 45:10 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

47:7 *…fir’avnni duo qildi* — yoki *…fir’avnga hurmat bajo ayladi*.

47:11 *Ramzes shahri yaqinidagi yerlar* — Go‘shen yerlarining boshqacha tasvirlanishi. 45:10 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

47:14 *kumush* — qadimgi paytlarda ma’lum vazndagi kumush bo‘laklari odatda pul birligi sifatida ishlatilgan.

47:21 *…butun xalq fir’avnga qul bo‘lib qoldi* — qadimiy yunoncha va lotincha tarjimalardan. Ibroniycha matnda *…hamma xalq shaharlarga ko‘chirildi*.

47:26 *bugungacha* — shu kitob yozilgan vaqtga ishora.

47:27 *Yoqub* — ibroniycha matnda *Isroil*, Yoqubning yana bir ismi (shu bobning 29, 31–oyatlarida ham bor). 32:27-28 ga qarang.

47:29 *…qo‘lingni sonim ostiga qo‘yib…* — 24:2 izohiga qarang.

47:29 *…“Sizning vasiyatingizni bajaraman”, deb qasam ich* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *…menga mehribonlik va sodiqlik bilan muomala qilgin*, bu o‘rinda shu ibora Yusuf otasi Yoqubning vasiyatini bajarishiga ishora qiladi.

47:30 *ota–bobolarimning xilxonasi* — Yoqubning bobosi Ibrohim va otasi Is’hoq dafn qilingan Maxpaladagi g‘or nazarda tutilgan (25:9-10, 49:30-31 ga qarang).

48:3 *Luz shahri* — Baytil shahrining oldingi nomi (28:19 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang). O‘sha shaharda Xudo Yoqubga ikki marta zohir bo‘lgan edi (28:10-22, 35:1-15 ga qarang). Bu oyatda Yoqub Xudo unga ikkinchi marta zohir bo‘lgani haqida gapiryapti.

48:7 *Paddon* — *Paddon–Oram*ning qisqa shakli. 25:20 izohiga qarang.

48:7 *Baytlahm* — 35:19 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

48:8-10 *Yoqub* — ibroniycha matnda *Isroil*, Yoqubning yana bir ismi (shu bobning 11, 13, 14, 21–oyatlarida ham bor). 32:27-28 ga qarang.

48:12 *…tizzasidan…* — Yoqub Efrayim va Manasheni duo qilganda ular Yoqubning yonida yoki tizzalarining orasida turgan bo‘lishlari mumkin. Ular ulg‘aygan, Yoqub esa nihoyatda qarib qolgani uchun ularni tizzalarida ushlab o‘tira olmagan bo‘lishi mumkin.

48:14 *o‘ng qo‘li* — o‘ng qo‘l kuchliroq hisoblangani uchun, odamlar o‘ng qo‘lni qo‘yib duo qilishganda, ko‘proq baraka keladi, deb ishonishardi.

48:15 *…Yusufni duo qildi…* — Yoqub Efrayim va Manasheni duo qilish orqali Yusufni duo qilgandi.

48:22 *Shakam* — 12:6 ning birinchi izohiga qarang. Bu o‘rindagi ibroniycha so‘zni *ulush* yoki *tepaliklar* deb tarjima qilsa ham bo‘ladi.

48:22 *…men qilichu kamonim bilan Amor xalqlaridan tortib olganman* — 34:25-29 da bayon etilgan voqea nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin, lekin o‘sha paytda Yoqub ikkala o‘g‘lining qilmishini qattiq tanqid qilgan edi (34:30 ga qarang). Kitobda yozilmagan

boshqa bir hodisa nazarda tutilgan bo‘lishi ham mumkin.

49:4 *…To‘shagimga chiqib, uni bulg‘ading* — 35:22 ga qarang.

49:5 *…Qilichlari jabr–jafo qurolidir* — 34:25-26 ga qarang. Bu yerda *qilich* deb tarjima qilingan ibroniycha so‘zning ma’nosi bahsli.

49:8 *Yahudo* — bu ism ibroniychadagi *madh etar* so‘ziga ohangdosh.

49:10 *saltanat hassasi* — bu maxsus hassa bo‘lib, shoh va hukmdorlarning hokimiyatini bildiruvchi ramz edi.

49:10 *…Xalqlar unga o‘lpon keltirarlar…* — yoki *…Saltanat hassasining egasi kelgunga qadar…* yoxud *…Hukmdor kelgunga qadar…*. Ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *…Shilo‘ kelgunga qadar…*. Shilo‘ Isroilning shimolidagi bir joy edi. Yoshua davridan tortib Shomuil davriga qadar Muqaddas chodir va Ahd sandig‘i Shilo‘da edi (Yoshua 18:1, Hakamlar 18:31, 1 Shohlar 1:24, 4:3 ga qarang). *Shilo‘* so‘zining bu oyatdagi ma’nosi bahsli.

49:11 *Sharobda yuvadi…ko‘ylaklarini* — bu ibora ko‘chma ma’noda bo‘lib, Yahudo barakali va boy–badavlat bo‘lishini, uzum tokidan mo‘l hosil olishini bildiradi.

49:12 *Sharobdan ham qora ko‘zlari, Sutdan ham oppoq tishlari* — bu ibora ko‘chma ma’noda bo‘lib, Yahudoning sharobi va suti mo‘l bo‘lishini bildiradi. Sharob va sutning mo‘lligi barakaning belgisi edi.

49:13 *Sidon* — O‘rta yer dengizi bo‘yidagi qadimgi Finikiyaga qarashli shahar bo‘lib, hozirgi Livan mamlakatining janubiy qismida joylashgan.

49:14 *…qo‘rada…* — yoki *…xurjunlar orasida…*.

49:16 *Dan* — ibroniychadagi ma’nosi *hukm qildi*. Bu ism ibroniychadagi *hukm qiladi* so‘ziga ohangdosh.

49:18 *Sendan najot kutarman, ey Egam!* — bu so‘zlar duo tarkibiga kirmaydi. Bular Yoqubning Egamizga qilgan iltijosi yoki muallifning gapi bo‘lishi mumkin.

49:19 *Gad* — bu ism ibroniychadagi *bosqinchilar* va *talab ketadi* so‘zlariga ohangdosh.

49:21 *…Ajoyib ohuchalar dunyoga keltirar* — yoki *…U yoqimli so‘zlarni aytar*.

49:22 *Yusuf o‘xshar serhosil tokka…novdalari devordan oshib o‘tar* — yoki *Yusuf o‘xshar qulonga — Buloq bo‘yidagi qulonga. Qirlardagi qulondaydir u*.

49:26 *Abadiy tog‘lar barakasidan…* — qadimiy yunoncha tarjimadan. Ibroniycha matnda *Ajdodlarning barakasidan…*.

49:31 *U yerga bobom Ibrohim bilan buvim Sora dafn qilingan* — 23:17-20, 25:9-10 ga qarang.

50:2 *Yoqub* — ibroniycha matnda *Isroil*, Yoqubning yana bir ismi (32:27-28 ga qarang).

50:8 *Go‘shen yerlari* — 45:10 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

50:11 *Ovil–Misrayim* — ibroniychadagi ma’nosi *Misrliklarning qayg‘usi*.

50:13 *…Maxpaladagi dalada joylashgan g‘orga dafn qildilar* — 47:30 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

CHIQISH

(TAVROTNING IKKINCHI KITOBI)

Kirish

Chiqish kitobi Tavrotning ikkinchi kitobidir. Mazkur kitobda Xudo O‘z xalqi Isroilni Misrdagi qullikdan ozod qilgani va u yerdan olib chiqqani to‘g‘risida hikoya qilinadi. Shu bois, kitob “Chiqish” deb nomlangan. Ibtido kitobining oxirida bayon qilingan voqealardan mazkur kitobda bayon qilingan voqealargacha oradan 400 yil o‘tadi. Isroil xalqi taxminan miloddan avvalgi 1440 yilda Misrdan chiqadi (3 Shohlar 6:1 ga va o‘sha oyatning birinchi izohiga qarang).

Chiqish kitobida Xudoning nomi (3:13-15 ga qarang) va Uning ilohiy tabiati namoyon qilingan bo‘lib: “Egamiz tanho, haqiqiy Xudodir, barcha yaratilganlarning Hukmdoridir”, deb ta’lim beriladi. Xudo biror ishni amalga oshirishga qaror qilganda, hech kim Uni to‘xtata olmaydi.

Chiqish kitobini uch qismga bo‘lish mumkin. Birinchi qismdagi aksariyat voqealar (1-13–boblar) Misr yurtida ro‘y beradi. Isroil xalqi bu yerda fir’avnga qul bo‘lib xizmat qilardi. Xudo O‘z xalqining ohu nolalarini eshitadi. Ularni qullikdan ozod qilish uchun Musoni tanlaydi.

Muso fir’avndan, Isroil xalqini qo‘yib yubor, deb talab qilganda, fir’avn rad javobini beradi. Shuning uchun Xudo Misrga o‘nta ofat yuborishi to‘g‘risida Musoga aytadi. Bu ofatlar ko‘pincha “o‘nta o‘lat” deb ham aytiladi. Oxiri, noiloj qolgan fir’avn Isroil xalqiga Misrdan chiqib ketishga ijozat beradi.

Kitobning ikkinchi qismida (14-18–boblar) Isroil xalqi Xudoning muqaddas tog‘i — Sinayga ketayotganlarida boshlaridan kechirgan voqealar hikoya qilinadi. Misr fir’avni Isroil xalqini ozod qilish fikridan darrov qaytib, lashkariga ularni tutib kelish haqida farmon beradi. Lekin Xudo Isroil xalqini himoya qilib, Misr lashkarini qirib tashlaydi. So‘ngra Isroil xalqi sahro bo‘ylab yurganda, Xudo ularni oziq–ovqat va suv bilan ta’minlaydi.

Kitobning so‘nggi qismidagi voqealar (19-40–boblar) Sinay tog‘ida yuz beradi. Xudo bu tog‘da Musoga zohir bo‘lib, unga o‘nta amrni, shuningdek, kundalik turmush, axloq va sajda marosimlariga oid qonun–qoidalarni beradi. Xudo Isroil xalqi orasida istiqomat qila olishi uchun Musoga Muqaddas chodirni yasashni buyuradi. Chodir va uning jihozlariga oid batafsil ko‘rsatmalarni beradi. Muqaddas chodir Xudoning O‘z xalqi orasidagi maskani bo‘lib, xalq u yerda Xudoga turli nazrlaru qurbonliklarni keltirishi kerak bo‘ladi.

Mazkur kitobning zamirida axloq va Xudoga sajda qilish kabi muhim mavzular yotadi. Chiqish kitobida Xudo O‘z xalqiga to‘g‘ri sajda qilish yo‘llarini o‘rgatadi. Biroq shu bilan cheklanibgina qolmay, ularga najot haqida xabar berib, O‘z va’dalariga sodiqligini amalda ko‘rsatadi.

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

1–BOB

Misrliklar Isroil xalqiga zulm o‘tkazadi

1-4 Isroil* o‘g‘illarining ismlari quyidagichadir: Ruben, Shimo‘n, Levi, Yahudo, Issaxor,
Zabulun, Benyamin, Dan, Naftali, Gad, Osher. Ular otasi Yoqub bilan birga o‘z oilalarini
olib, Misrga ketgan edilar. 5 O‘shanda Yoqubning avlodi hammasi bo‘lib yetmish*
kishidan iborat edi. Uning o‘g‘li Yusuf bu paytda Misrda yashardi.
6 Vaqti–soati yetib, Yusuf, uning aka–ukalari va o‘sha avlodning hammasi olamdan
o‘tib ketdi. 7 Isroil nasli esa barakali bo‘lib, borgan sari ko‘payib boraverdi. Misr yurti
ular bilan to‘lib–toshdi.
8 O‘sha paytda Misr taxtiga yangi fir’avn* o‘tirdi. U Yusuf to‘g‘risida hech narsa
bilmasdi. 9 U o‘z xalqiga shunday dedi:
— Qaranglar, Isroil xalqi bizga qaraganda ko‘payib, kuchayib ketdi. 10 Qani, bir yo‘lini
topib, ularni ko‘payib ketishdan to‘xtataylik. Bo‘lmasa, urush bo‘lib qolganda, ular
dushmanlarimizga qo‘shilib, bizga qarshi urush qiladilar. Keyin yurtimizdan qochib
ketadilar.
11 Shunday qilib, Misrliklar nazoratchilar tayinlab, Isroil xalqini og‘ir ishlarga majbur
qildilar, tinka–madorini quritdilar. Isroil xalqi fir’avn uchun Pitom va Ramzes degan
ombor shaharlarni* qurib berdi.
12 Lekin Misrliklar Isroil xalqiga qanchalik zulm o‘tkazsalar ham, Isroil xalqi yana
ham ko‘payib yurt bo‘ylab yoyilib borardi. Misrliklar bu ahvoldan qo‘rquvga tushib
qoldilar. 13-14 Ular Isroil xalqini ayovsiz, zo‘rlik bilan qul qilib, har turli dala ishlariga,
loydan g‘isht quyishga majburladilar. Misrliklar ularga shafqat qilmadilar.
15 Shifro va Puvo degan ibroniy doyalar bor edi. Misr fir’avni ularga shunday farmon
berdi:
16 — Ibroniy ayollar ko‘zi yoriyotgan paytda doyalik qilayotganingizda, yaxshilab
e’tibor bering: chaqaloq o‘g‘il bo‘lsa, o‘ldiringlar, qiz bo‘lsa, yashayversin.
17 Ikkala doya Xudodan qo‘rqardi. Shuning uchun Misr fir’avnining farmoniga itoat
etmasdan, o‘g‘il bolalarni o‘ldirmadilar. 18 Misr fir’avni doyalarni chaqirib so‘radi:
— Nimaga bunaqa qilyapsizlar? Nimaga o‘g‘il bolalarni tirik qoldiryapsizlar?
19 — Ibroniy ayollar Misrlik ayollarga o‘xshamaydilar, — deb javob berishdi doyalar.
— Ular juda baquvvat, shuning uchun biz bormasimizdan oldin tug‘ib qo‘yyaptilar.
20 Shuning uchun Xudo doyalarga marhamat qildi. Isroil xalqi ko‘payib, yana ham
kuchayaverdi. 21 Doyalar Xudodan qo‘rqqanlari uchun, Xudo ularni oilali qildi.
22 Shundan keyin fir’avn o‘z xalqiga: “Ibroniylarda tug‘ilgan har bir o‘g‘il bola Nil
daryosiga uloqtirilsin, qiz bolalar esa yashayversin”, deb farmon berdi.

2–BOB

Musoning tug‘ilishi

1 O‘sha paytda Levi naslidan bir yigit bilan qiz oila qurdilar. 2 Keyinchalik ayol
homilador bo‘lib, o‘g‘il tug‘di. Ayol chaqaloqning chiroyliligini ko‘rib, uni uch oy yashirib
yurdi.
3 Lekin ayol chaqaloqni ortiq yashirib yurolmasligiga ko‘zi yetgach, qamish savat
oldi. Suv kirmasin deb, savatni qora saqich bilan suvadi. Keyin savatning ichiga

chaqaloqni solib, savatni daryo bo‘yidagi qamishzor orasiga qo‘yib ketdi. 4 Chaqaloqning opasi* esa: “Uning taqdiri nima bo‘larkin”, deb uzoqdan kuzatib turdi.

5 Shu paytda fir’avnning qizi daryo bo‘yiga cho‘milgani kelib qoldi. Kanizaklari esa daryo bo‘yida yurishardi. Fir’avnning qizi birdan qamishzor orasidagi savatni ko‘rib qoldi–da, cho‘risiga: “Savatni olib kel!” deb buyurdi. 6 Fir’avnning qizi savatni ochib qarasaki, bir chaqaloq yig‘lab yotgan ekan. “Bu ibroniy bolalaridan biri”, dedi u. Chaqaloqqa rahmi keldi.

7 Chaqaloqning opasi shu paytda fir’avnning qizi oldiga kelib, undan so‘radi:

— Borib, ibroniy ayollaridan birortasini chaqirib kelaymi? U enagalik qilib, sizga chaqaloqni boqib berardi.

8 — Mayli, bor, — dedi fir’avnning qizi. Qizcha borib, chaqaloqning onasini chaqirib keldi. 9 Fir’avnning qizi ayolga:

— Mana bu chaqaloqni olib bor, menga boqib ber, — dedi. — Qilgan xizmating uchun haqini to‘layman.

Shunday qilib, ayol chaqaloqni olib ketdi va o‘zi parvarish qildi.

10 Bola katta bo‘lgach, ayol uni fir’avnning qiziga olib keldi. Fir’avnning qizi bolani o‘ziga o‘g‘il qilib oldi. “Uni suvdan chiqarib olganman”, deb ismini Muso* qo‘ydi.

Muso Midiyon yurtiga qochib ketadi

11 Muso ulg‘aygandan keyin, bir kuni qabiladoshlarini ko‘rgani bordi. U qabiladoshlari qilayotgan og‘ir mehnatni kuzatib turganda, bir ibroniy birodarini bir Misrlik urayotganiga ko‘zi tushib qoldi. 12 Muso atrofga qaradi. Hech kim yo‘qligiga ishonch hosil qilgach, Misrlik odamni o‘ldirib, qumga ko‘mib qo‘ydi.

13 Keyingi kuni Muso yana o‘sha yerga borganda, ikkita ibroniyning bir–biri bilan janjallashayotganini ko‘rib qoldi. Muso nohaqlik qilgan odamdan: “Nimaga birodaringni uryapsan?” deb so‘radi. 14 Shunda haligi odam:

— Kim seni bizga hukmdor va hakam qilib qo‘ydi? Misrlikni o‘ldirganingday, meni ham o‘ldirmoqchimisan? — dedi. O‘sha zahoti Muso: “Bu ish oshkor bo‘lib qolganga o‘xshaydi”, deb o‘ylab qo‘rqib ketdi. 15 Keyin fir’avn ham bu voqeani eshitib, Musoni o‘ldirmoqchi bo‘ldi. Lekin Muso fir’avndan qochib Midiyon yurtiga* ketdi. U Midiyonga kelib, quduq yonida o‘tirdi.

16 Midiyon yurti ruhoniysining yettita qizi bor edi. Qizlar otasining qo‘y–echkilarini sug‘orish uchun oxurlarga suv to‘ldirgani kelib qoldilar. 17 Ammo bir nechta cho‘pon kelib, qizlarni haydab yuborishdi. Shunda Muso qizlarni himoya qildi, ularning qo‘ylarini sug‘orishga ham yordamlashdi. 18 Keyin qizlar otalari Yatroning* yoniga qaytib keldilar.

— Nimaga bugun erta qaytib keldingizlar? — deb so‘radi Yatro qizlaridan.

19 — Misrlik bir odam bizni cho‘ponlardan himoya qildi, — deb javob berishdi qizlar. — Buning ustiga, bizning o‘rnimizga suv tortib, qo‘ylarimizni ham sug‘ordi.

20 — Qayerda o‘sha odam? — deb so‘radi Yatro qizlaridan. — Nimaga u odamni qoldirib keldingizlar? Boringlar, uni chaqirib kelinglar, biz bilan birga ovqatlansin.

21 Shunday qilib, Muso Yatronikida yashashga rozi bo‘ldi. Yatro esa Musoni qizi Zippuraga uylantirib qo‘ydi. 22 Zippura Musoga o‘g‘il tug‘ib berdi. Muso: “Men begona yurtda musofir bo‘lib qoldim”, deb o‘g‘lining ismini Gershom* qo‘ydi.

23 Yillar o‘tdi. Bu orada Misr fir’avni olamdan o‘tib ketdi. Isroil xalqi hamon qullikda

azob chekar, madad so‘rab faryod qilardi. Ularning faryodi Xudoga yetib bordi. 24 Xudo
Isroil xalqining ohu nolalarini eshitdi. Ibrohim, Is’hoq, Yoqub bilan ahd qilib bergan
va’dasi* Uning yodida edi. 25 Xullas, Xudo Isroil xalqining ahvolini ko‘rib, ularga achindi.

3–BOB

Xudo Musoni chaqiradi

1 Musoning qaynatasi — Midiyon yurtining ruhoniysi bo‘lgan Yatro edi. Muso uning
qo‘y–echkilarini boqib yurardi. U qo‘y–echkilarni sahroning g‘arb tomoniga haydab,
Xudoning muqaddas tog‘i Sinayga* borib qoldi. 2 Birdan butadagi alangada Egamizning
farishtasi Musoga zohir bo‘ldi. Muso hayron bo‘ldi: buta yonardi–yu, ammo yonib
tugamasdi. 3 Muso: “Juda g‘alati–ku, borib, bir qaray–chi, buta nimaga yonib
tugamayapti ekan”, deb o‘yladi. 4 Muso yaqinroq bordi, Egamiz uning kelayotganini
ko‘rib, butaning orasidan: “Muso! Muso!” deb chaqirdi.

— Labbay, shu yerdaman, — deb javob berdi Muso.

5 — Endi bu yog‘iga kelma! Oyog‘ingdagi chorig‘ingni yech! — dedi Xudo. — Sen
turgan joy muqaddas yerdir. 6 Men ota–bobolaring — Ibrohim, Is’hoq va Yoqubning
Xudosiman.

Muso Xudoga qarashdan qo‘rqib, darrov yuzini berkitib oldi.

7 Keyin Egamiz yana aytdi:

— Imoning komil bo‘lsin: xalqimning Misrda chekkan azoblarini ko‘rdim, madad
so‘rab nazoratchilar zulmi dastidan qilgan faryodlarini eshitdim. Ha, xalqimning
chekkan hamma azoblarini bilaman. 8 Shuning uchun Men xalqimni Misrliklarning
zulmidan qutqargani keldim. Men ularni Misrdan olib chiqib, keng, unumdor, sut va asal
oqib yotgan yurtga* olib borgani keldim. U yerda Kan’on, Xet, Amor, Pariz, Xiv va Yobus
xalqlari yashaydi. 9 Xalqimning faryodi Menga yetib keldi. Misrliklar xalqimga qanchalik
zulm o‘tkazayotganini ko‘rib turibman. 10 Qani, bo‘l, seni hozir Misr fir’avni huzuriga
yuboraman. Xalqim Isroilni Misrdan sen olib chiqasan.

11 Shunda Muso Xudoga:

— Men kim bo‘libmanki, fir’avnning huzuriga borib Isroil xalqini Misrdan olib
chiqsam?! — deb javob berdi. 12 Xudo esa shunday dedi:

— Men sen bilan bo‘laman. Isroil xalqini Misrdan olib chiqqaningdan keyin, shu
toqqa kelib, Menga sajda qilasizlar. Seni Men yuborganimning isboti shu bo‘ladi.

13 Ammo Muso Xudoga quyidagicha javob berdi:

— Isroil xalqi oldiga borib: “Sizlarning oldingizga ota–bobolaringizning Xudosi meni
yubordi”, deb aytsam, ular: “Kim U?”* deb so‘raydilar–ku! O‘shanda men nima deb javob
beraman?

14 — Men har doim bor bo‘lgan Xudoman*, — deb javob berdi U. — Xalqim Isroilga:
“Meni sizlarning oldingizga yuborganning nomi — Men Borman”, deb aytasan. 15 Isroil
xalqiga yana: “Meni sizlarning oldingizga ota–bobolaringiz — Ibrohim, Is’hoq va
Yoqubning Xudosi — Egangiz* yubordi”, deb ayt. Mening nomim to abad shunday
bo‘lsin. Unvonimni kelgusi avlodlar shunday deb aytsin.

16 Xudo yana Musoga aytdi:

— Endi bor, xalqim Isroilning oqsoqollarini to‘plab, ularga: “Ota–bobolaringiz —
Ibrohim, Is’hoq va Yoqubning Xudosi — Egangiz menga zohir bo‘ldi”, deb ayt. Ularga shu

gapimni yetkaz: “Imoningiz komil bo‘lsin: Misrliklar sizlarga qanday zulm
o‘tkazayotganini Men ko‘rib, kuzatib turibman. 17 Endi va’da berib aytamanki, sizlarni
Misrda chekayotgan azob–uqubatlaringizdan xalos qilaman. Sizlarni Kan’on, Xet, Amor,
Pariz, Xiv va Yobus xalqlarining yerlariga, sut va asal oqib yotgan yurtga boshlab olib
boraman.” 18 Isroil oqsoqollari senga quloq solishadi. Keyin Misr fir’avni huzuriga ular
bilan sen ham birga bor. Fir’avnga shunday deb aytinglar: “Ibroniylarning Xudosi —
Egamiz O‘zini bizga zohir qildi. Endi bizga ijozat ber, sahroda uch kun yo‘l yurib borib,
Egamiz Xudoga qurbonliklar keltiraylik.” 19 Ammo Misr fir’avnini majburlamasa u
sizlarning ketishingizga ijozat bermasligini bilaman. 20 O‘shanda Men qo‘limni ko‘tarib,
Misrliklarni uraman, ha, mo‘jizalar orqali ularni jazolayman. O‘shandan keyingina
fir’avn sizlarning ketishingizga ijozat beradi. 21 Men shunday qilamanki, Misrliklar
sizlarga iltifot ko‘rsatadilar. Sizlar ketayotganlaringizda bo‘sh qo‘l bilan chiqib
ketmaysizlar. 22 Isroil xalqidan har bir ayol Misrlik qo‘shnisidan yoki qo‘shnisining uyida
istiqomat qilayotgan Misrlik ayoldan oltin va kumush taqinchoqlar, kiyim–kechaklar
so‘rab oladi. O‘g‘illaringizni, qizlaringizni taqinchoqlaru kiyim–kechaklar bilan
yasantirasizlar. Shunday qilib, Misrliklarning boyliklarini olib ketasizlar.

4–BOB

Musoga Egamiz mo‘jiza ko‘rsatish qudratini ato qiladi

1 Shunda Muso:

— Isroil xalqi gapimga quloq solmasdan: “Egamiz senga zohir bo‘lmagan”, deb
menga ishonmasa, unda nima qilaman? — deb so‘radi.

2 — Qo‘lingdagi nima? — deb so‘radi Egamiz.

— Tayoq, — deb javob berdi Muso.

3 — Tayoqni yerga tashla! — deb amr qildi Egamiz. Muso tayoqni yerga tashlagan
edi, tayoq ilonga aylanib qoldi. Muso darrov ilondan o‘zini olib qochdi.

4 Egamiz yana Musoga:

— Qo‘lingni uzatib, ilonning dumidan ushla! — deb amr berdi. Muso qo‘lini uzatib,
ilonning dumidan ushlagan edi, shu zahoti ilon Musoning qo‘lida yana tayoqqa aylanib
qoldi.

5 — Shu mo‘jizani ko‘rsatasan! — deb amr berdi Egamiz, — toki Mening xalqim ota–
bobolari — Ibrohim, Is’hoq va Yoqubning Xudosi — Men senga zohir bo‘lganimga
ishonsinlar.

6 So‘ngra Egamiz yana:

— Qo‘lingni qo‘yningga tiq! — deb amr berdi. Muso qo‘lini qo‘yniga tiqib, chiqargan
edi, qo‘liga yara toshib*, qorday oppoq bo‘lib qoldi.

7 — Qo‘lingni yana qo‘yningga tiq! — deb amr berdi Egamiz. Muso qo‘lini yana
qo‘yniga tiqib chiqargan edi, qo‘li tanasining qolgan qismi singari asl holiga qaytdi.

8 — Agar senga ishonmasalar yoki ko‘rsatgan birinchi mo‘jizangga e’tibor
bermasalar, ikkinchi mo‘jizaga ishonadilar, — dedi Egamiz. 9 — Gapingga quloq solmay,
ikkala mo‘jizaga ham ishonmasalar, Nil daryosi suvidan olib, quruq yerga to‘k. Daryodan
olib yerga to‘kkan suving qonga aylanadi.

10 — Yo Rabbiy! — dedi Muso. — Men hech qachon gapga chechan bo‘lmaganman.
Men, qulingga gapirganingdan buyon ham xuddi shundayman. Axir, mening tilim

chuchuk, sekin gapiraman.
11 Shunda Egamiz:
— Insonga til ato qilgan kim? — dedi. — Insonni kim soqov, kar, koʻradigan yoki koʻr qilib yaratadi? Men, Egangiz, emasmi?! 12 Endi bor! Gaplashganingda, Men sen bilan birga boʻlaman. Nimani gapirishingni Men senga oʻrgatib turaman.
13 — Yo Rabbiy! — dedi Muso. — Iltijo qilaman: mening oʻrnimga boshqasini yubora qolgin.
14 Shundan keyin Egamiz Musodan qattiq gʻazablanib dedi:
— Akang Horun bor–ku! U ham Levi naslidan. Bilaman, u gapga chechan. Ana, oʻzi ham senga peshvoz kelyapti. Akang seni koʻrib xursand boʻladi. 15-16 Horun sening oʻrningga xalq bilan gaplashadi. Horun nima deyishi lozimligini sen aytasan. Sen u uchun Xudoga — Menga oʻxshagan boʻlasan. Sizlar gapirganingizda, Men ikkovingiz bilan birga boʻlaman. Har ikkovingizga Men nima qilishingizni aytib turaman. 17 Mana bu tayogʻingni qoʻlingga ol, bu moʻjizalarni tayoq orqali koʻrsatasan.

Muso Misrga qaytib boradi

18 Muso qaynatasi Yatroning oldiga qaytib kelib, unga dedi:
— Ijozat bering, Misrdagi qabiladoshlarimning yoniga qaytay. Borib bilay–chi, ular haliyam tirikmikan.
— Eson–omon bor, — deb Yatro u bilan xayrlashdi. 19 Muso hamon Midiyonda yashar ekan, Egamiz unga:
— Misrga qayt, sening joningni olmoqchi boʻlganlarning hammasi olamdan oʻtib ketdi, — degan edi.
20 Shunday qilib, Muso xotini bilan oʻgʻillarini eshakka mindirdi. Xudo, ol, deb tayinlagan tayoqni* qoʻliga olib, Misrga boradigan yoʻlga chiqdi. 21 Egamiz Musoga yana shularni eslatdi:
— Misrga borganingda, Men bergan qudrat bilan sen fir’avnning koʻzi oldida hamma ajoyibotlarni koʻrsat. Men esa uning yuragini tosh qilib qoʻyaman. U xalqimning ketishiga ijozat bermaydi. 22 Keyin sen fir’avnga Mening shu gapimni yetkaz: “Egamiz shunday aytmoqda: Isroil Mening toʻngʻich oʻgʻlimdir. 23 Ijozat ber, oʻgʻlim borib, Menga sajda qilsin, deb senga aytgan edim. Ammo sen unga ketishga ijozat bermading. Shuning uchun endi sening toʻngʻich oʻgʻlingni nobud qilaman.”
24 Muso va uning oilasi tunni oʻtkazgani yoʻlda toʻxtadilar. Shu paytda Egamiz Musoning oldiga* borib, sal boʻlmasa uni oʻldiray dedi*. 25 Shu zahoti xotini Zippura* tosh pichoq* olib, oʻgʻlini sunnat qildi. Sunnat terisini Musoning oyoqlariga* tekkizib: “Seni men uchun shu sunnat qoni himoya qildi”, dedi. 26 Shunda Egamiz Musoning hayotini saqladi. Zippura Musoga: “Sen shu sunnat qoni orqali himoya qilinding”, dedi.
27 Soʻngra Egamiz Horunga:
— Musoni kutib olgani sahroga bor! — deb amr berdi. Shunday qilib, Horun Musoni kutib olgani Xudoning muqaddas togʻiga* ketdi. Horun Musoni topgach, u bilan quyuq salomlashdi. 28 Muso Egamizning aytgan hamma gaplarini Horunga gapirib berdi. Bajarishi kerak boʻlgan hamma moʻjizalar haqida ham Horunga soʻzlab berdi. 29 Shunday qilib, Muso bilan Horun Misrga borishgach, Isroilning barcha oqsoqollarini toʻpladilar. 30 Horun Egamizning Musoga aytgan hamma gaplarini oqsoqollarga soʻzlab berdi. Ularning koʻzi oldida moʻjizalarni koʻrsatdi. 31 Oqsoqollar eshitib koʻrganlariga

ishondilar. Egamiz O‘z xalqini kuzatib turganini, ularning chekkan azoblarini ko‘rganini eshitib, Unga ta’zim etib, sajda qildilar.

5–BOB

Muso bilan Horun fir’avn huzurida

1 Shundan keyin Muso bilan Horun fir’avn huzuriga borib, unga shunday dedilar:
— Isroil xalqining Xudosi — Egamiz shunday aytmoqda: “Xalqimga ijozat ber, ular sahro ichkarisiga borib, menga atab bayram nishonlashsin.”
2 Fir’avn esa:
— Egangiz kim o‘zi?! Uning so‘ziga kirib Men Isroil xalqini qo‘yib yuboraymi?! — dedi. — Egangizni tanimayman, Isroil xalqining ketishiga esa ijozat bermayman.
3 Shunda Muso bilan Horun:
— Ibroniylarning Xudosi bizga O‘zini zohir qildi, — deb javob berishdi. — Ijozat bering, sahroda uch kun yo‘l yurib borib, Egamiz Xudoga qurbonliklar keltiraylik. Aks holda, U bizni yo o‘latga mubtalo qiladi, yoki qilichning damiga ro‘para qilib jazolaydi.
4 Lekin Misr fir’avni:
— Ey Muso! Ey Horun! Nimaga xalqni ishdan qoldiryapsizlar?! — dedi. — Boringlar, ishlaringizni qilinglar! 5 Qaranglar, bu yerda qancha qarollar* bor–a! Sizlar bo‘lsa, ularni chalg‘itib, ishdan qo‘ymoqchisizlar!
6 O‘sha kuni fir’avn Isroil xalqining tepasida turgan Misrlik nazoratchilarga va Isroil xalqidan bo‘lgan ishboshilarga shunday farmon berdi: 7 “Isroil xalqiga g‘isht quygani endi oldingiday somon bermanglar. O‘zlari yurib somon yig‘ishsin. 8 Oldin qancha g‘isht quyishgan bo‘lsa, bundan keyin ham shuncha g‘isht quyishga majbur qilinglar. G‘isht quyish miqdorini hech ham kamaytirmanglar. Ular dangasa xalq. Shuning uchun ular, ijozat bering, borib, Xudoyimizga qurbonliklar keltiraylik, deb nola qilishyapti. 9 Ularni shunaqangi ishlatinglarki, ish bilan qattiq band bo‘lib, behuda gaplarga quloq solishmasin*.”
10 Shunday qilib, Isroil xalqining tepasida turgan Misrlik nazoratchilar bilan Isroil xalqidan bo‘lgan ishboshilar borib, Isroil xalqiga aytdilar:
— Fir’avn shunday demoqda: “Sizlarga endi somon bermayman. 11 Boringlar! Qayerdan bo‘lsa ham o‘zlaringiz somon topinglar. Lekin quyayotgan g‘ishtingizning miqdori aslo kamaymasin.”
12 Isroil xalqi somon o‘rniga xas–cho‘p yig‘ish uchun butun Misr yurti bo‘ylab tarqalib ketdi. 13 Nazoratchilar esa ularni siquvga olar edilar. “Kundalik ishlaringizni somon berilgan kunlardagiday kamaytirmasdan bajaringlar”, deb aytardilar.
14 Fir’avnning nazoratchilari o‘zlari xizmatga tayinlagan Isroil xalqi ishboshilarini kaltaklab: “Nimaga kecha ham, bugun ham, oldingiday, belgilangan miqdordagi g‘ishtni quymayapsizlar?” deb talab qilardilar.
15 Shundan so‘ng Isroil xalqining ishboshilari fir’avn huzuriga borib, faryod qildilar:
— Nimaga biz, qullaringizga, bunday muomala qilyapsiz? 16 Bizga somon berishmaydi–yu, “G‘isht quyinglar!” deb buyruq qilishadi. Biz kaltak ostida qoldik–ku! Aybdor esa sizning odamlaringiz.
17 Fir’avn esa:
— Dangasasizlar, dangasa! — deya javob berdi. — Shuning uchun: “Ijozat ber, borib,

Egamizga qurbonliklar keltiraylik”, deyaverasizlar. 18 Boringlar, ishlanglar! Sizlarga somon berilmaydi. Lekin belgilangan miqdordagi g‘ishtni quyasizlar.

19 Shunda Isroil xalqining ishboshilari: “Kunda belgilangan g‘isht miqdorini kamaytirmasdan quyasizlar!” degan gapni eshitib, qiyin ahvolda qolganlarini tushundilar. 20 Ular fir’avn huzuridan chiqishlari bilan, Muso bilan Horunga duch kelishdi. Ikkovi ularni kutib turgan edi. 21 Isroil xalqi ishboshilari:

— Sizlar bizni fir’avnga, uning a’yonlariga yomon ko‘rsatib qo‘ydingizlar, — deyishdi. — Bizni o‘ldirishiga sabab topib berdingiz. Egamiz qilmishlaringizni ko‘rib, jazoingizni bersin!

Muso Egamizga shikoyat qiladi

22 Shundan keyin Muso ularning oldidan ketib, Egamizga iltijo qildi:

— Yo Rabbiy! Nimaga bu xalqni shunchalik kulfatga qo‘yding? Nimaga meni yubording? 23 Fir’avnga Sening xabaringni olib kelishim bilanoq, u xalqingga battar vahshiylik qila boshladi. Sen esa O‘zingning xalqingni ozod qilmading.

6–BOB

Egamiz Isroil xalqini qutqarishga va’da beradi

1 Shundan so‘ng Egamiz Musoga aytdi:

— Fir’avnni nima qilishimni endi ko‘rasan. U qudratli kuchimni ko‘rgandan keyin, xalqimning ketishiga ijozat beribgina qolmaydi, hatto xalqimni o‘z yurtidan quvib yuboradi.

2 Xudo Musoga yana dedi:

— Men Egangizman. 3 Ibrohimga, Is’hoqqa va Yoqubga Men Qodir Xudo bo‘lib O‘zimni zohir qildim*. Ammo ularga Men, ularning Egasi deb tanilmagan edim*. 4 Ular Kan’on yurtida musofir bo‘lib yashagan edilar. O‘sha yurtni sizlarga beraman, deb ular bilan ahd qildim*. 5 Misrliklar qul qilgan Isroil xalqining faryodini aniq eshitdim. Men o‘sha ahdimni yodimda tutaman. 6 Shunday qilib, bu to‘g‘rida Isroil xalqiga Mening shu gapimni yetkaz: “Men Egangizman. Men sizlarni Misrliklarning zulmidan ozod qilaman, qullikdan olib chiqaman. Qudratli kuchim va hukmning buyuk ishlari bilan sizlarni qullikdan ozod qilaman. 7 Men sizlarni O‘zimning xalqim qilaman, sizlarning Xudoyingiz bo‘laman. Sizlarni Misrliklarning zulmidan xalos qilgan Egangiz Xudo Men ekanligimni o‘shanda bilib olasizlar. 8 Men Ibrohimga, Is’hoqqa va Yoqubga ont ichib, beraman degan yurtga sizlarni olib boraman. O‘sha yurtni sizlarga mulk qilib beraman. Men Egangizman.”

9 Muso bu gaplarni Isroil xalqiga aytgan edi, ammo xalq uning gaplariga quloq solmadi. Chunki xalq og‘ir zulm ostida qolib, ruhan tushkunlikka tushgan edi.
10 Shundan keyin Egamiz Musoga aytdi:

11 — Misr fir’avni huzuriga borib ayt: Isroil xalqi Misrdan chiqib ketishiga ijozat bersin.

12 — Gapimga Isroil xalqi quloq solmadi–yu, fir’avn quloq solarmidi?! — dedi Muso. — Qolaversa, yaxshi gapira olmayman–ku!

13 Ammo Egamiz Muso bilan Horunga amr qildi: “Misr fir’avni oldiga qaytib boringlar. Isroil xalqi Misrdan ketishiga ijozat bering, deb talab qilinglar.”

Muso va Horunning nasl–nasabi

14 Ba’zi Isroil qabilalarining urug‘boshilari quyidagilardir:

Yoqubning* to‘ng‘ich o‘g‘li Rubenning Xano‘x, Palluv, Xazron va Karmi degan o‘g‘illari bor edi. Ulardan Ruben qabilasining urug‘lari kelib chiqqan.

15 Shimo‘nning Yamuvol, Yomin, Oxad, Yoxin, Zo‘xar va Kan’onlik ayoldan tug‘ilgan Shovul degan o‘g‘illari bor edi. Ulardan Shimo‘n qabilasining urug‘lari kelib chiqqan.

16 Levi 137 yil yashadi. Uning Gershon, Qohot va Marori degan o‘g‘illari bor edi. 17 Gershonning Lubnax va Shimax degan o‘g‘illari bor edi. 18 Qohot 133 yil yashadi. Uning Imrom, Izxor, Xevron va Uziyol degan o‘g‘illari bor edi.
19 Marorining Maxli va Mushi degan o‘g‘illari bor edi. Ularning hammasidan Levi qabilasining urug‘lari kelib chiqdi.
20 Imrom 137 yil yashadi. U o‘zining ammasi Yo‘xavadga uylandi. Yo‘xavad Imromga Horun va Musoni tug‘ib berdi. 21 Izxorning Ko‘rax, Nafax va Zixri degan o‘g‘illari bor edi. 22 Uziyolning Mishail, Elzafan va Sitri degan o‘g‘illari bor edi.
23 Horun Elishbaga uylandi. U Ominadavning qizi, Naxsho‘nning singlisidir. Elishba Horunga to‘rtta o‘g‘il: Nadov, Abihu, Elazar va Itamarni tug‘ib berdi.
24 Ko‘raxning Aser, Elqana va Abuasaf degan o‘g‘illari bor edi. Ulardan Ko‘rax urug‘lari kelib chiqdi. 25 Horunning o‘g‘li Elazar Futiyolning qizlaridan biriga uylandi. Xotini Elazarga Finxazni tug‘ib berdi.
Urug‘lari bo‘yicha Levi qabilasining urug‘boshilari ana shulardir.

26 Yuqorida aytib o‘tilgan Horun va Musoga Egamiz: “Isroilning har bir oilasi va qabilasini Misrdan olib chiqinglar!” deb amr berdi. 27 Ular: “Isroil xalqini ozod qiling”, deb Misr fir’avniga buyruq berdilar.

Horun Musoning o‘rniga gapiradi

28 Shunday qilib, Egamiz Muso bilan Misrda gaplashganda, 29 unga: “Men Egangizman, senga aytganlarimning hammasini Misr fir’avniga yetkaz!” deb amr bergan edi. 30 Muso esa Egamizning oldida: “Men yaxshi gapira olmayman–ku! Fir’avn mening gapimga quloq solmaydi!” degan edi.

7–BOB

1 Egamiz Musoga aytdi:
— Qarab tur, akang Horunni sening o‘rningga gapiradigan qilaman. Seni fir’avn uchun Xudoday qilib qo‘yaman. Horun esa sening payg‘ambaring bo‘lib, gaplaringni fir’avnga yetkazadi. 2 Men senga aytgan hamma amrlarni akangga ayt. Isroil xalqi Misrdan chiqib ketishi uchun ijozat ber, deb Horun fir’avnga aytadi. 3 Lekin Men alomatu mo‘jizalarimni Misr yurtida ko‘rsatay deb, fir’avnning yuragini tosh qilib qo‘yaman.
4 Fir’avn sizlarning gapingizga quloq solmaydi. O‘shanda Men Misrga qarshi qo‘l ko‘tarib, unga ko‘p kulfatlar keltiraman. Keyin hukmning qudratli ishlari bilan Isroil oilalarini va qabilalarini olib chiqaman. 5 Misrga qarshi qo‘l ko‘tarib, Isroil xalqini Misrliklarning orasidan olib chiqqanimda, Egangiz Men ekanligimni Misr xalqi bilib

oladi.

6 Muso bilan Horun Egamizning amriga binoan ish tutdilar. 7 Ular fir’avn bilan
gaplashganlarida, Muso sakson yoshda, Horun sakson uch yoshda edi.

Horunning tayog‘i

8 Egamiz Muso bilan Horunga gapirdi:

9 — Fir’avn sizlarga: “Birorta ajoyibot ko‘rsatinglar–chi”, deb aytsa, Horunga buyur,
tayoqni olib, fir’avnning oldiga tashlasin. Tayoq ilonga aylanib qoladi.

10 Shunday qilib, Muso bilan Horun fir’avn huzuriga bordilar. Egamiz amr etganday
ish tutdilar: Horun tayog‘ini fir’avn va uning a’yonlari oldiga tashlagan edi, tayoq o‘sha
zahoti ilonga aylanib qoldi. 11 Shunda fir’avn ham o‘zining sehrgarlarini —
donishmandlarini va folbinlarini chaqirdi. Misr sehrgarlari sehr–jodularini ishlatib,
o‘shanaqa mo‘jiza ko‘rsatdilar. 12 Har biri tayog‘ini yerga tashlagan edi, tayoq ilonga
aylanib qoldi. Horunning iloni Misr sehrgarlarining ilonlarini yutib yubordi. 13 Egamiz
aytganday, baribir, fir’avnning yuragi toshligicha qoldi, Muso bilan Horunning gapiga u
quloq solmadi.

Birinchi falokat: Nil daryosi qonga aylanadi

14 Shundan keyin Egamiz Musoga aytdi:

— Baribir, fir’avnning yuragi toshligicha qolib, xalqimning ketishiga ijozat berishni
istamayapti. 15 Ertaga ertalab fir’avnning oldiga bor. U daryoga boradi. Sen uni daryo
bo‘yida kutib tur. Ilonga aylangan tayog‘ing qo‘lingda bo‘lsin. 16 Fir’avnga shunday deb
ayt: “Ibroniylarning Xudosi — Egamiz meni sening huzuringga shu gapni aytgani
yubordi: «Mening xalqimga ijozat ber, ular sahroga borib, Menga sajda qilishsin.» Sen
hamon Egamizning gapiga quloq solmayapsan. 17 Egamiz shunday aytmoqda: «Egangiz
Men ekanligimni endi bilib olasan.» Qo‘limdagi mana bu tayoqni Nil daryosining suviga
urganimda, suv qonga aylanadi. 18 Daryodagi baliqlar nobud bo‘ladi. Daryo sasib ketadi.
Misr xalqi daryo suvini icholmaydi.”

19 So‘ngra Egamiz Musoga shunday dedi:

— Horunga ayt, tayoqni qo‘liga olib, Misr suvlari tomonga — Misrdagi daryolar,
anhorlar, ko‘llar, hamma suv havzalari tomonga uzatsin. Misrdagi hamma joylarda suv
qonga aylanadi, hatto butun Misr yurtidagi yog‘och va tosh idishlardagi suvlar ham
qonga aylanadi.

20 Shunday qilib, Muso bilan Horun Egamiz amr etganday qilishdi: Horun fir’avn va
uning a’yonlari ko‘zi oldida tayog‘ini ko‘tarib daryo suviga urgan edi, shu zahoti daryo
suvi qonga aylanib qoldi. 21 Daryodagi baliqlar nobud bo‘lib, daryo suvi sasib ketdi. Misr
xalqi daryo suvini icholmay qoldi. Misrning hamma yeri qonga to‘lib ketdi. 22 Misr
sehrgarlari ham sehr–jodularini ishlatib, xuddi o‘shanday qildilar. Egamiz aytganday,
baribir, fir’avnning yuragi toshligicha qoldi, Muso bilan Horunning gapiga u quloq
solmadi. 23 Bo‘lib o‘tgan mo‘jizadan fir’avnning yuragi qilt etmasdan, saroyiga qaytdi.
24 Daryo suvini ichib bo‘lmagani sababli, Misr xalqi ichimlik suvi topish uchun daryo
yaqinida quduqlar kovlay boshladilar. 25 Egamiz Nil daryosi suvini qonga aylantirgandan
keyin yetti kun davomida suv qon bo‘lib oqaverdi.

8–BOB

Ikkinchi falokat: qurbaqa ofati

1 Egamiz Musoga yana aytdi:

— Fir’avnning huzuriga borib, Mening shu gapimni yetkaz: “Egamiz shunday aytmoqda: Mening xalqimga ijozat ber, ular borib, Menga sajda qilsin. 2 Agar sen xalqimga ijozat berishdan bosh tortsang, butun yurtingga qurbaqa yuborib shikast yetkazaman. 3 Daryo qurbaqalar bilan to‘lib–toshadi. Qurbaqalar daryodan chiqib, sening saroyingga, yotoqxonangga, to‘shagingga, a’yonlaringu xalqingning uylariga, tandirlariga va xamir tog‘oralariga ham kirib oladi. 4 Qurbaqalar sening, Misr xalqining va barcha a’yonlaringning ustilarida sakrab yuradi.”

5 Egamiz Musoga yana gapirdi:

— Horunga ayt, u qo‘lidagi tayog‘ini daryolar, anhorlar, ko‘llar tomonga uzatib, qurbaqalarni chiqarsin. Misr yurtini qurbaqalar bosib ketsin.

6 Horun tayog‘ini Misr suvlari tomonga uzatdi. O‘sha zahoti qurbaqalar chiqib, Misrni bosib ketdi. 7 Misrlik sehrgarlar ham sehr–jodulari bilan Misr yurtiga qurbaqalar chiqardilar. 8 Shunda fir’avn Muso bilan Horunni chaqirib aytdi:

— Egangizga: “Fir’avnni va uning xalqini O‘zing qurbaqalardan xalos qilgin”, deb ibodat qilinglar. Shundan keyin Isroil xalqiga ketgani ijozat beraman, toki ular borib Egangizga qurbonliklar keltirsin.

9 Shunda Muso fir’avnga dedi:

— Xo‘p, vaqtini o‘zing tayinla. Qurbaqalar sizlardan, xonadonlaringizdan yo‘qolsin, faqat Nil daryosida qolsin deb, sen uchun, a’yonlaring va xalqing uchun qachon ibodat qilay?

10 — Ertaga, — dedi fir’avn.

— Bo‘pti, sen aytganday bo‘ladi! — deb javob berdi Muso. — O‘shanda Egamiz Xudoga o‘xshagan xudo yo‘qligini bilib olasan. 11 Qurbaqalar sendan, a’yonlaringdan, xalqingdan va xonadonlaringizdan yo‘qoladi. Faqat Nilda qoladi, xolos.

12 Shunday qilib, Muso bilan Horun fir’avn huzuridan chiqdilar. Fir’avn boshiga keltirgan qurbaqa ofatini yo‘q qilgin, deb Muso Egamizga iltijo qildi. 13 Egamiz Musoning iltijosini eshitdi, uylardagi, hovlilardagi va dalalardagi qurbaqalar o‘ldi.
14 Qurbaqalarning o‘ligini uyum–uyum qildilar. Misr yurtini qo‘lansa hid tutib ketdi.
15 Lekin fir’avn Misr yurti qurbaqadan xalos bo‘lganini ko‘rgach, Egamiz aytganday, yuragini tosh qilib, Muso bilan Horunning gapiga quloq solmadi.

Uchinchi falokat: burga ofati

16 Egamiz Musoga gapirishda davom etdi:

— Horunga buyur, u tayog‘ini uzatib, yerning changiga ursin. Shunda yerdagi chang burgaga aylanib, butun Misrni qoplaydi.

17 Ular Egamizning aytganini qildilar: Horun qo‘lidagi tayog‘ini uzatib, yerning changiga urgan edi, insonlar bilan hayvonlarning ustiga burga yopirildi. Butun Misr yerining changi burgaga aylandi. 18 Odamlarni, hayvonlarni burga bosib ketdi. Sehrgarlar ham sehr–jodulari bilan changni burgaga aylantirmoqchi bo‘ldilar, lekin uddasidan chiqolmadilar. 19 Ular fir’avnga: “Bu Xudoning ishi”, deyishdi. Lekin Egamiz aytganday, baribir, fir’avnning yuragi toshligicha qolib, Muso bilan Horunning

aytganlariga quloq solmadi.

To‘rtinchi falokat: so‘na ofati

20 Egamiz Musoga yana gapirdi:

— Ertaga saharda o‘rningdan tur. Fir’avn daryoga borayotganda, uning oldiga
borgin–da, Mening shu gapimni yetkaz: “Egamiz shunday aytmoqda: Mening xalqimga
ijozat ber, ular borib, Menga sajda qilsin. 21 Agar xalqimni qo‘yib yubormasang, Men
o‘zingning, a’yonlaringning, xalqingning ustiga so‘nalar* galasini yuborib jazolayman.
Misrliklarning uylari, ular yashayotgan yer so‘naga to‘lib–toshadi. 22 Lekin o‘sha kuni O‘z
xalqim yashayotgan Go‘shen yerlarini* ajratib qo‘yaman. U yerda so‘na bo‘lmaydi. Men,
Egangiz, bu yurtda bor ekanligimni bilib olinglar deb, shuni qilaman. 23 Men O‘z xalqim
bilan sening xalqingni ayirib qo‘yaman*. Bu mo‘jiza ertaga yuz beradi.”

24 Egamiz aytganini qildi: fir’avnning saroyiga, a’yonlarining uylariga gala–gala so‘na
yubordi. Butun Misr yurti so‘na oqibatida xarob bo‘ldi. 25 Shundan so‘ng fir’avn Muso
bilan Horunni chaqirib: “Boringlar, shu yurt ichida Xudoyingizga qurbonliklar
keltiraveringlar”, deb aytdi.

26 — Bunday qilsak, to‘g‘ri bo‘lmaydi, — deb javob berdi Muso. — Egamiz Xudoga
hayvonlarni qurbonlik qilsak, Misrliklar buni jirkanch deb hisoblaydilar. Misrliklar
qabih deb hisoblagan ishni yana ularning ko‘zi oldida qilsak, bizni toshbo‘ron
qilmaydilarmi?!* 27 Egamiz Xudo, bizga amr etganday, Unga qurbonliklar keltirgani
sahroda uch kun yo‘l yurib borishimiz kerak.

28 — Mayli, ijozat beraman, — dedi fir’avn. — Sahroga borib, Egangiz Xudoga
qurbonliklar keltiringlar. Lekin uzoqqa ketmaysizlar. Endi sen hoziroq men uchun
ibodat qil.

29 — Huzuringdan chiqishim bilanoq Egamizga: “Ertaga so‘nalar fir’avndan,
a’yonlaridan, xalqidan daf bo‘lsin”, deb ibodat qilaman, — dedi Muso. — Lekin xalq
Egamizga qurbonliklar keltirgani ketayotganda, bizni aldama, ijozat bermay qo‘yma.

30 Muso fir’avn huzuridan chiqib, Egamizga ibodat qildi. 31 Egamiz Musoning
ibodatini eshitdi. Fir’avndan, uning a’yonlaridan, Misr xalqidan so‘nalarni daf qildi.
Birorta ham so‘na qolmadi. 32 Lekin fir’avn bu safar ham yuragini tosh qilib, xalqqa
ketishga ijozat bermadi.

9–BOB

Beshinchi falokat: chorvaning o‘limi

1 Shundan keyin Egamiz Musoga yana gapirdi:

— Fir’avnning huzuriga borib, unga Mening shu gapimni yetkaz: “Ibroniylarning
Xudosi — Egamiz shunday aytmoqda: «Mening xalqimga ijozat ber, ular borib, Menga
sajda qilishsin.» 2 Agar ijozat bermay, Isroil xalqini ushlab turaversang, 3 chorvangni —
otlaringni, eshaklaringni, tuyalaringni, mol–qo‘ylaringni Egamiz O‘z qudrati bilan urib,
og‘ir o‘lat kasali yuboradi. 4 Egamiz Isroil xalqi bilan Misrliklarning chorvasini ayirib
qo‘yadi. Isroil xalqining chorvasidan birortasiyam nobud bo‘lmaydi. 5 Egamiz vaqtini
ham belgilab, aytganlarim ertaga bu yurtda bajo bo‘ladi, deb aytdi.”

6 Ertasi kuni Egamiz aytganlarini qildi: Misrliklarning chorvasi qirilib ketdi. Isroil
xalqining chorvasidan esa birortasini ham nobud qilmadi. 7 Fir’avn odam yuborib
bildiki, Isroil xalqining chorvasidan birortasiyam nobud bo‘lmabdi. Lekin baribir,

fir’avnning yuragi toshligicha qolib, Isroil xalqiga ketishga ijozat bermadi.

Oltinchi falokat: chipqon ofati

8 Shundan keyin Egamiz Muso bilan Horunga yana aytdi:

— O‘choqdan bir oz kul olinglar. Muso kulni fir’avnning ko‘zi oldida osmonga sochsin. 9 Shunda kul changga aylanib, butun Misrni chang qoplaydi. Kul butun yurtdagi insonlarning, hayvonlarning tanasiga yallig‘langan chipqon chiqaradi.

10 Shunday qilib, Muso bilan Horun o‘choqdan kul olib, fir’avn huzuriga bordilar. Muso kulni osmonga sochgan edi, kul odamlarda va hayvonlarda yallig‘langan chipqon paydo qildi. 11 Sehrgarlar ham Musoning oldida chipqon og‘rig‘iga chidab turolmadilar. Chunki barcha Misrliklar kabi, sehrgarlarga ham chipqon chiqqan edi. 12 Ammo Egamiz fir’avnning yuragini tosh qilib qo‘ydi. U Musoga aytganday, Muso bilan Horunning gapiga fir’avn quloq solmadi.

Yettinchi falokat: do‘l ofati

13 Egamiz Musoga yana dedi:

— Sahar payti tur. Fir’avnning huzuriga borib, unga Mening shu gapimni yetkaz: “Ibroniylarning Xudosi — Egamiz aytmoqda: Mening xalqimga ijozat ber, ular borib, Menga sajda qilsin. 14 Agar ijozat bermasang, bu dunyoda Menga o‘xshagan xudo yo‘qligini bilib olasan deb, Men o‘zingning, a’yonlaringning, xalqingning ustiga juda og‘ir falokatlarni yuboraman. 15 Haqiqatan, Men senga qarshi qo‘l ko‘tarib, o‘zing va xalqingni o‘latga duchor qilib, yer yuzidan qirib yuborgan bo‘lardim. 16 Ammo senga qudratimni ko‘rsatay, butun olamga shuhratimni yoyay deb, yashashingga izn berdim. 17 Sen xalqimning ketishiga ijozat bermay, ularga qarshilik qilyapsan. 18 Bilib qo‘y, Men ertaga shu vaqtda shunaqangi do‘l yog‘diramanki, Misr yurti paydo bo‘lgandan buyon bunaqa do‘lni ko‘rmagan. 19 Endi, chorvamni va ochiq joylardagi bor mol–mulkimni pana joylarga yig‘inglar, deb farmon ber. Do‘l yoqqanda ochiq dalada qolgan hamma odamlaru hayvonlar nobud bo‘ladi.”

20 Fir’avnning a’yonlaridan ba’zilari Egamizning so‘zlaridan qo‘rqib, qullarini va chorvasini darrov uylariga olib keldilar. 21 Egamizning so‘zlarini mensimaganlar esa qullari bilan chorvasini ochiq joyda qoldirdilar.

22 Egamiz Musoga:

— Qo‘lingni osmonga uzat! — dedi. — Misrning hamma joyiga, odamlarning, hayvonlarning, daladagi jamiki ekinlarning ustiga do‘l yog‘adi.

23 Muso tayog‘ini osmonga to‘g‘ri ko‘targan edi, Egamiz momaqaldiroq va do‘l paydo qildi, yerga yashin tushdi. Shunday qilib, Egamiz Misr yurtiga do‘l yubordi. 24 Natijada g‘oyat kuchli do‘l yog‘ib, uzoq vaqt yashin chaqnadi. Misr paydo bo‘lgandan beri bunaqangi do‘lni ko‘rmagan edi. 25 Do‘l Misrda ochiq joylardagi hamma narsani — insondan tortib, hayvonlaru ekin–tikinlargacha nobud qildi. Daraxtlarni yer bilan yakson qildi. 26 Faqat Isroil xalqi yashayotgan Go‘shen yerlariga do‘l yog‘madi.

27 Fir’avn shundan so‘ng Muso bilan Horunni chaqirtirib kelib shunday dedi:

— Bu safar men aybdorman. Egangiz haq, men bilan xalqim esa nohaqmiz. 28 Bu dahshatli momaqaldiroq bilan do‘lga ortiq bardosh berolmaymiz. Iltimos, Egangizdan so‘rang, bularni to‘xtatsin. Xalqingiz ketishiga ijozat beraman. Sizlar endi Misrda ortiq qolmaysizlar.

29 — Shahardan chiqishim bilanoq qo‘llarimni Egamizga cho‘zib iltijo qilaman, —

dedi Muso. — Momaqaldiroq to‘xtaydi, do‘l ham yog‘maydi. O‘shanda butun olam Egamizniki ekanini bilasan. 30 Lekin shunisi menga ma’lumki, o‘zing, a’yonlaring hali ham Parvardigor Egamizdan qo‘rqmaysizlar.

31 Bu paytda arpa boshoqlagan, zig‘irpoya gullab qolgandi. Zig‘irpoya va arpa payhon bo‘ldi. 32 Biroq bug‘doy kechki bo‘lgani uchun* zarar ko‘rmadi. 33 Muso fir’avn huzuridan chiqib, shahardan tashqariga bordi. U qo‘llarini Egamiz tomon uzatgan edi, momaqaldiroq va do‘l to‘xtadi, yomg‘ir ham tindi. 34 Yomg‘ir tinib, do‘l va momaqaldiroq to‘xtaganini fir’avn ko‘rdi–yu, yana gunohga qo‘l urdi. O‘zi ham, a’yonlari ham yuragini tosh qilib oldilar. 35 Egamiz Muso orqali aytganday, baribir, fir’avnning yuragi toshligicha qolib, Isroil xalqiga ketishga ijozat bermadi.

10–BOB

Sakkizinchi falokat: chigirtka ofati

1 Egamiz Musoga amr berdi:

— Fir’avnning huzuriga bor! Men, mo‘jizalarimni ularning orasida ko‘rsatay deb, fir’avnni va uning a’yonlari yuragini tosh qilib qo‘ydim. 2 Misrliklarni masxara qildim, ularga mo‘jizalar ko‘rsatdim. Endi sizlar bolalaringizga, nabiralaringizga bularni aytib berasizlar deb, shu ishlarni qildim. Ana shunda Egangiz Men ekanligimni hammalaringiz bilib olasizlar.

3 Muso bilan Horun fir’avnning huzuriga borib, unga Egamizning shu gapini yetkazdilar:

— Ibroniylarning Xudosi — Egamiz shunday aytmoqda: “Sen qachongacha Menga itoat etmay yurasan?! Xalqimga ijozat ber, ular borib, Menga sajda qilishsin. 4 Agar xalqimning ketishiga ijozat bermasang, Men ertaga yurtingga chigirtkalar* yuboraman. 5 Chigirtkalar yer yuzini shunaqangi qoplaydiki, yer tamomila ko‘rinmay qoladi. Do‘ldan omon qolgan hosilingizni, dalada o‘sgan jamiki daraxtlaringizni chigirtkalar yeb bitiradi. 6 Saroying, a’yonlaringning uylari, hamma Misrliklarning xonadonlari chigirtkaga to‘lib ketadi. Ota–bobolaring yer yuzida paydo bo‘lgandan buyon bunaqasini ko‘rmagan.”

Shundan keyin Muso fir’avnning huzuridan burilib chiqib ketdi.

7 Shunda a’yonlar fir’avnga:

— Bu odam bizga tuzoq bo‘lsa ham, qachongacha indamaysiz?! — dedilar. — Ijozat bering o‘shalarga! Ketaverishsin. Egasi Xudoga sajda qilishsin. Ko‘rmayapsizmi, Misr xarob bo‘ldi–ku!

8 Shundan so‘ng Muso bilan Horunni fir’avn o‘z huzuriga chaqirtirdi. Fir’avn ikkoviga dedi:

— Mayli, boringlar, Egangiz Xudoga sajda qilinglar. Ammo sizlardan kimlar boradi?

9 — Yoshu qari — hammamiz birga ketamiz, — deb javob berdi Muso. — O‘g‘illarimizni, qizlarimizni, mol–qo‘ylarimizni ham olib ketamiz. Egamizga atab bayram nishonlashimiz kerak.

10 Fir’avn qarshilik qildi:

— Agar xotinlaringiz va bolalaringiz bilan ketishlaringizga ijozat bersam, Egangiz albatta sizlar bilan bo‘ladi! Niyatingiz yomonligi ochiq ko‘rinib turibdi. 11 Yo‘q, ularga aslo javob bermayman! Egangizga sajda qilgani borishni istayotgan sizlar emasmi?! Juda yaxshi. Faqat erkaklarni olinglar–u, ketaveringlar.

Shunda Muso bilan Horunni fir’avnning huzuridan haydadilar.
12 Egamiz Musoga:
— Qo‘lingni Misr uzra uzat! — deb amr berdi. — Misr yurtiga chigirtka yog‘ilsin. Chigirtkalar bu yurtdagi hamma o‘simliklarni, do‘ldan omon qolgan hamma ekin–tikinni yeb bitirsin.
13 Muso tayog‘ini Misr uzra uzatgan edi, Egamiz bu yurtga sharqdan shamol estirdi. Bir kecha–kunduz shamol esdi. Sharqdan esgan shamol ertalabgacha chigirtkalarni olib keldi. 14 Butun Misr yurtiga chigirtka yopirildi. Misrning hamma joyini chigirtka bosib ketdi. Chigirtkalar shunchalik uyilib ketdiki, ilgari bunaqasi bo‘lmagan edi, bundan keyin ham bo‘lmaydi. 15 Yer yuzini chigirtka bosib ketganidan, yer qop–qora bo‘lib qoldi. Jamiki ekin–tikinni, do‘ldan omon qolgan daraxtlardagi meva–chevalarni chigirtka yeb bitirdi. Misrdagi biror daraxtda, biror o‘simlikda yashil barg qolmadi. 16 Fir’avn zudlik bilan Muso bilan Horunni chaqirtirib, ularga aytdi:
— Egangiz Xudoga va o‘zlaringizga qarshi gunoh qildim. 17 O‘tinaman, bir martagina gunohimdan kechib, Egangiz Xudoga iltijo qilinglar. Bu halokatli ofatni mendan daf qilsin.
18 Muso fir’avnning huzuridan chiqib, Egamizga ibodat qildi. 19 Egamiz g‘arbdan juda kuchli shamol estirdi. Shamol chigirtkalarni Qizil dengizga* uchirib olib ketdi. Misr yurtida bironta ham chigirtka qolmadi. 20 Lekin Egamiz fir’avnning yuragini yana tosh qilib qo‘ydi va fir’avn Isroil xalqiga ketishga ijozat bermadi.

To‘qqizinchi falokat: zulmat

21 Egamiz Musoga:
— Qo‘lingni osmonga uzat! — deb amr berdi. — Misrni qo‘rqinchli zulmat qoplaydi.
22 Muso qo‘lini osmonga uzatdi. Shundan keyin Misr uch kun davomida zimziyo zulmat ichida qoldi, 23 birov birovni ko‘ra olmadi. Natijada hech kim biron joyga yurib bora olmadi. Isroil xalqi yashayotgan yer esa yorug‘ edi. 24 Fir’avn yana Musoni chaqirtirib, unga:
— Boringlar, Egangizga sajda qilaveringlar, — dedi. — Bola–chaqalaringizni olib ketaveringlar. Ammo mol–qo‘ylaringizni qoldirib ketasizlar.
25 — Bo‘lmaydi! — dedi Muso. — Chorvamizni ham olib ketishimizga ijozat berishing kerak. Biz Egamiz Xudoga qurbonliklar va kuydiriladigan qurbonliklar keltiramiz.
26 Hamma chorvamizni o‘zimiz bilan olib ketamiz, orqada bironta ham tuyoq qolmasligi kerak. Egamiz Xudoga sajda qilganimizda, qurbonliklarni shu mol–qo‘ylarimizdan olamiz. U yerga bormagunimizcha, Egamizga nimani qurbonlik qilishimizni bilmaymiz–ku!
27 Shunday qilib, Egamiz yana fir’avnning yuragini tosh qilib qo‘ydi. Fir’avn o‘jarlik qilib, Isroil xalqiga ketishga ijozat bermadi. 28 Oxiri fir’avn Musoga:
— Yo‘qol bu yerdan! — deb baqirdi. — Ehtiyot bo‘l, bundan keyin zinhor ko‘zimga ko‘rinma! Ko‘zimga ko‘ringan zahoti o‘lasan!
29 — Sen aytganingday bo‘lsin! — dedi Muso. — Bundan keyin ko‘zingga ko‘rinmayin!

11–BOB

Muso oxirgi falokatni fir’avnga ayon qiladi

1 Egamiz Musoga aytgandi*: “Men fir’avnning boshiga ham, Misr yurtiga ham yana
bitta falokat yuboraman, o‘shandan keyingina bu yerdan ketishingizga u sizlarga ijozat
beradi. Bu yurtdan o‘zi sizlarni hatto haydab chiqaradi. 2 Endi Isroil xalqiga ayt: hamma
erkagu ayol Misrlik qo‘shnisidan oltin, kumush taqinchoqlar so‘rab olsin.” 3 Egamiz
Misrliklarni shunday qildiki, ular Isroil xalqiga iltifot ko‘rsatdilar. Musoni ham Misr
yurtida, fir’avnning a’yonlari, Misr xalqi ko‘z oldida g‘oyat ulug‘ qilgan edi.

4 Shunda Muso fir’avnga dedi:

— Egamiz shunday aytmoqda: “Tun yarmida Misr bo‘ylab yuraman. 5 Shunda
Misrdagi hamma to‘ng‘ich o‘g‘illar — taxtda o‘tirgan fir’avnning to‘ng‘ichidan tortib, qo‘l
tegirmonida o‘tirib ishlayotgan cho‘ri xotinning to‘ng‘ich o‘g‘ligacha nobud bo‘ladi.
Hatto chorvaning birinchi erkak bolasigacha nobud bo‘ladi. 6 Butun Misr bo‘ylab qattiq
faryod ko‘tariladi. Bunaqa voqea ilgari bo‘lmagan, bundan keyin ham bo‘lmaydi. 7 Isroil
xalqi yashagan yerlarda esa tinchlik hukm suradi. Ularga qarashli birorta odamga yoki
birorta hayvonga hatto it ham hurib qo‘ymaydi. O‘shanda Men, Egangiz, Isroil xalqini
Misr xalqidan ayirganimni bilib olasizlar.” 8 O‘shanda a’yonlaring hammasi kelib, menga
ikki bukilib ta’zim qiladi. Menga: “Sen ham, senga ergashgan xalqing ham ketinglar”, deb
yolvorasizlar. Men o‘shandan keyin ketaman.

Muso g‘azab bilan fir’avnning huzuridan chiqib ketdi.

9 Egamiz Musoga shunday degan edi: “Misrda Mening ajoyibotlarim ko‘payishi uchun
fir’avn sizlarning gapingizga quloq solmaydi.” 10 Muso bilan Horun fir’avnning oldida
hamma ajoyibotlarni ko‘rsatib bo‘ldilar. Lekin Egamiz fir’avnning yuragini tosh qilib
qo‘ydi. Fir’avn o‘z yurtidan Isroil xalqining ketishiga ijozat bermadi.

12–BOB

Fisih ziyofati va Xamirturushsiz non bayrami to‘g‘risida ko‘rsatmalar

1 Muso bilan Horun Misrda yashar ekanlar, Egamiz ularga quyidagi ko‘rsatmalarni
berdi:

Fisih ziyofati

2 “Bu oy sizlar uchun ilk oy — yilning birinchi oyi bo‘ladi*. 3 Isroil xalqining butun
jamoasiga yetkazinglar: shu oyning o‘ninchi kunida oila boshliqlari bitta qo‘zi yoki
uloqcha tanlaydi. Buni xonadondagilar tanovul qiladi. 4 Bitta jonliq bir oilaga ko‘plik
qiladigan bo‘lsa, oila a’zolarining soni va bir odam tanovul qiladigan go‘sht miqdori
hisoblab chiqiladi. So‘ngra o‘sha oila jonliq go‘shtini yonidagi qo‘shnisi bilan bo‘lishadi.
5 Nuqsonsiz, bir yashar erkak jonliqni tanlab olinglar. 6 Birinchi oyning o‘n to‘rtinchi
kuni kechqurungacha qo‘zilarni alohida saqlanglar. So‘ngra Isroil xalqi jamoasining har
bir xonadoni o‘zining qo‘zisini so‘yishi lozim. 7 So‘ng ular qurbonlikning qonidan olib,
qurbonlik go‘shti tanovul qilinadigan uyning eshigi kesakisi* yonlariga va tepasiga
surtishsin. 8 O‘sha kuni kechqurun go‘shtni olovda pishirishsin va o‘sha go‘shtni,
xamirturushsiz non hamda taxir o‘tlarni tanovul qilishsin. 9 Qurbonlik go‘shtining suvda
qaynatilganini yoki xomini tanovul qilishmasin. Kalla–pocha va ichak–chovoqlarini
olovda pishirib yeyishsin. 10 Go‘shtdan ertalabgacha qolmasin. Agar ortib qolsa,

ertalabga qoldirmay olovda kuydiringlar. 11 Go‘shtni tanovul qilayotganingizda, shay
turinglar. Chorig‘ingiz oyog‘ingizda, tayog‘ingiz qo‘lingizda bo‘lsin, tez–tez yenglar. Men,
Egangizga bag‘ishlangan Fisih qurbonligi shudir.
12 O‘sha tunda Men Misrning bu boshidan narigi boshigacha o‘tib, insonlarning har
bir to‘ng‘ich o‘g‘illarini ham, chorvaning birinchi erkak bolasini ham o‘ldiraman. Men,
Egangiz, Misrning hamma xudolariga qarshi hukmni ijro etaman. 13 Eshiklaringizning
kesakisiga surtilgan qon yashayotgan uylaringizni belgilaydi. Qonni ko‘rib, sizlarni
chetlab o‘taman. Men Misrni jazolaganimda, o‘lat ofatidan sizlar omon qolasizlar.

Xamirturushsiz non bayrami

14 Bu kunni* sizlar to abad esda tutishlaringiz lozim. Har yili bu kunni Men,
Egangizga atalgan bayram qilib nishonlanglar. Bu bayram avlodlaringiz osha doimiy
qonun–qoida bo‘lib qolsin. 15 O‘sha yetti kun davomida xamirturushsiz non tanovul
qilinglar. Birinchi kuniyoq uylaringizdagi xamirturushni yo‘qotinglar. Kimki yetti kun
davomida xamirturush qo‘shilgan non tanovul qilsa, u Isroil xalqi orasidan yo‘q qilinadi.
16 Bayramning birinchi kuni ham, yettinchi kuni ham butun xalq muqaddas yig‘inga
kelishi lozim. Shu kunlari, ovqat tayyorlashdan tashqari, hech qanday ish qilmanglar.
17 Xamirturushsiz non bayramini har yili nishonlaysizlar, chunki aynan o‘sha kuni
Men sizlarning oilalaringizni va qabilalaringizni Misrdan olib chiqqanman. Bu bayram
avlodlaringiz osha nishonlanib, doimiy qonun–qoida bo‘lib qolsin. 18 Birinchi oyning*
o‘n to‘rtinchi kuni kechqurundan boshlab shu oyning yigirma birinchi kuni
kechqurungacha xamirturushsiz non tanovul qilinglar. 19 Uylaringizda o‘sha yetti kun
davomida aslo xamirturush bo‘lmasin. Kimki xamirturush qo‘shilgan non tanovul qilsa,
u asli Isroil naslidanmi, musofirmi, baribir, Isroil xalqining jamoasidan yo‘q qilinadi.
20 Xamirturush qo‘shilgan nonni hech tanovul qilmanglar. Qayerda yashasangizlar ham,
xamirturushsiz non tanovul qilinglar.”

Ilk Fisih ziyofati

21 Shundan keyin Muso Isroilning hamma oqsoqollarini chaqirtirib, ularga dedi:
— Har bir xonadonga shunday deb aytinglar: “Oilangiz uchun bittadan qo‘zi yoki
uloqcha tanlab olib, Fisih ziyofatiga qurbonlik qilinglar*. 22 Keyin issop o‘tidan* bir
tutam olib, idishdagi qurbonlik qoniga botiringlar. Qonni uylaringiz eshigi kesakisining
yonlariga va tepasiga surtinglar. Tonggacha birortangiz uyingizdan chiqmanglar.
23 Chunki Egamiz Misr yurti bo‘ylab o‘tib, Misrliklarning to‘ng‘ich o‘g‘illarini nobud
qiladi. U eshiklaringizning kesakisidagi qonni ko‘rib, uylaringizni chetlab o‘tib ketadi.
Azroil uylaringizga kirib, sizlarning to‘ng‘ich o‘g‘illaringizni nobud qilishiga Egamiz yo‘l
qo‘ymaydi. 24 O‘zlaringiz ham, avlodlaringiz ham bu rasm–rusumlarga to abad rioya
qilishlaringiz lozim. 25 Egamiz sizlarga beraman, deb va’da qilgan yurtga
kirganlaringizdan keyin ham, bu udumni nishonlayveringlar. 26 Bolalaringiz sizlardan:
— Bu udumning ma’nosi nima? — deb so‘raganlarida, shunday javob beringlar:
27 — Bu Egamizga bag‘ishlangan Fisih qurbonligidir. Egamiz Misrliklarning to‘ng‘ich
o‘g‘illarini halok qilganda, Misrdagi Isroil xalqining uylarini chetlab o‘tib ketdi. Shunday
qilib, bizning xonadonlarimizni omon saqlab qoldi.”
Shunda Isroil oqsoqollari egilib, sajda qildi. 28 So‘ngra ular borib, Egamizning Musoga
va Horunga bergan amri bo‘yicha ish tutdilar.

O‘ninchi falokat: jamiki to‘ng‘ich erkak zoti nobud bo‘ladi

29 Egamiz yarim kechasi Misrliklarning jamiki to‘ng‘ichlarini — taxtda o‘tirgan
fir’avnning to‘ng‘ich o‘g‘lidan tortib, zindonda yotgan asirning to‘ng‘ich o‘g‘ligacha
o‘ldirdi. Hamma chorvaning birinchi erkak bolasini ham nobud qildi. 30 O‘sha kecha
fir’avn, uning hamma a’yonlari va butun Misr xalqi uyg‘onib ketdi. Butun Misrni qattiq
dod–faryod tutdi. Odam nobud bo‘lmagan birorta xonadon yo‘q edi. 31 O‘sha tundayoq
fir’avn Muso bilan Horunni chaqirtirib aytdi:
— O‘zlaringiz ham, Isroil xalqingiz ham yo‘qolinglar! Mening yurtimdan chiqib
ketinglar! O‘zlaringiz aytganingizday, borib Egangizga sajda qilaveringlar. 32 Mol–
qo‘ylaringizni ham olib ketinglar. Ammo ketayotganingizda, meni duo qilinglar.
33 “Isroil xalqi yurtimizdan tezroq chiqib ketsin, agar chiqib ketmasa, hammamiz
o‘lib ketamiz”, deb Misrliklar ularni qistovga oldilar. 34 Shunday qilib, Isroil xalqi kiyim–
kechaklariga o‘ralgan xamirturush qo‘shilmagan xamir to‘la tog‘oralarini olib,
yelkalariga ortishdi. 35 Isroil xalqi Musoning aytganini qilib, Misrliklardan oltin va
kumush taqinchoqlar, kiyim–kechaklar so‘rab olishdi. 36 Egamiz Misrliklarni shunday
qildiki, ular Isroil xalqiga iltifot ko‘rsatdilar. Isroil xalqi nima so‘rasa, ular berdilar. Shu
yo‘l bilan Isroil xalqi, g‘olib lashkarday, Misrliklarning boyliklarini olib ketdi.

Isroil xalqi Misrdan chiqib ketadi

37 Isroil xalqi Ramzesdan Suxotga* qarab yayov yo‘lga chiqdi. Ular 600.000 tacha
erkak bo‘lib, ayollar va bolalar bu hisobga kirmasdi. 38 Son–sanoqsiz begona xalqlar,
ko‘plab mol–qo‘ylar ham ular bilan birga ketdi. 39 Isroil xalqi Misrdan olib chiqqan
xamirturushsiz xamirdan patir non yopdilar. Ular Misrdan shunchalik tez chiqib
ketdilarki, yo‘lga yegulik tayyorlagani vaqt topolmagandilar.
40 Isroil xalqi Misrda 430 yil yashadi. 41 430 yilning oxirgi kunida Egamizning xalqiga
qarashli bo‘lgan hamma qabilalar Misrdan chiqib ketishdi. 42 O‘sha kuni kechasi Egamiz
xalqiga posbonlik qilib, ularni Misrdan olib chiqqan edi. Shu sababdan Isroil xalqi ham
avlodlar osha, har yili o‘sha tunni Egamizga bag‘ishlab, bayram qilishlari kerak.

Fisih ziyofati to‘g‘risida qonun–qoidalar

43 Keyin Egamiz Muso bilan Horunga aytdi: “Sizlar rioya qilishingiz lozim bo‘lgan
Fisih ziyofatining qonun–qoidalari quyidagichadir:

Isroil xalqiga qondosh bo‘lmagan odam Fisih taomidan tanovul qilmaydi. 44 Lekin
sotib olgan qullaringiz sunnat qilingandan keyin Fisih taomidan tanovul qilsa bo‘ladi.
45 Musofirlar va mardikorlar ham bu taomdan tanovul qilishmaydi.
46 Taomlar qaysi uyda tayyorlangan bo‘lsa, hammasi o‘sha uyda tanovul qilinishi
lozim. Tashqariga taom olib chiqilmaydi. Fisih ziyofatiga atab qurbonlik qilingan birorta
ham hayvonning suyagi sindirilmaydi.
47 Isroil xalqining butun jamoasi Fisih ziyofatini nishonlaydi. 48 Yonlaringizdagi biror
musofir Men, Egangizga bag‘ishlangan Fisih ziyofatini nishonlamoqchi bo‘lsa, oldin
uning xonadonidagi hamma erkaklar sunnat qilinishi lozim. Shundan keyingina Isroil
xalqiga mansub bo‘lgan odamday, Isroil jamoasiga qo‘shilib, Fisih ziyofatini nishonlaydi.
Sunnat qilinmaganlarning hech qaysisi Fisih taomidan tanovul qilishi mumkin emas.
49 Shu yerning tub aholisi uchun ham, oralaringizda yashayotgan musofir uchun ham
qonun o‘shadir.”

50 Egamizning Muso va Horun orqali bergan qonun–qoidalarini Isroil xalqi
bajardilar. 51 Shunday qilib, o‘sha kuniyoq Egamiz Isroil oilalarini va qabilalarini
Misrdan olib chiqdi.

13–BOB

To‘ng‘ich erkaklarni bag‘ishlash to‘g‘risidagi amr

1 Egamiz Musoga yana gapirdi:
2 — Hamma to‘ng‘ichlarni Menga bag‘ishlanglar. Isroil xalqining hamma to‘ng‘ich
o‘g‘illari va hayvonlarining birinchi erkak bolasi Menikidir.

Xamirturushsiz non bayrami to‘g‘risida ko‘rsatmalar

3-4 Shundan so‘ng Muso xalqqa dedi: “Bugun Abib oyida* sizlar Misr yurtidan chiqib
ketyapsizlar. Xamirturush qo‘shilgan nonni yemanglar. Bu kunni aslo eslaringizdan
chiqarmanglar. Zero, Egamiz O‘z qudrati bilan sizlarni Misrdagi qullikdan olib chiqdi. 5 U
sizlarni Kan’on, Xet, Amor, Xiv va Yobus xalqlarining yerlariga olib boradi. Egamiz bu
yerlarni ota–bobolaringizga, beraman, deb ont ichgan. U sizlarni sut va asal oqib yotgan
o‘sha yurtga* olib borgandan keyin, Abib oyida quyidagicha udumni o‘tkazinglar: 6 yetti
kun xamirturushsiz non yenglar. Yettinchi kuni Egamizga atab bayram qilinglar. 7 Shu
paytlarda uyingizda yoki yurtingizning biron joyida xamirturushli non yoki xamirturush
bo‘lmasin. 8 Har yili bayram kunlari davomida nima uchun bayramni
nishonlayotganingizni bolalaringizga tushuntirishingiz lozim. Ularga:
— Misrdan chiqayotganimizda, Egamiz bizga ko‘rsatgan cheksiz muruvvati uchun
bayramni nishonlayapmiz, — deb ayting. 9 Bu bayram go‘yo qo‘lingizdagi yoki
peshanangizdagi bir belgiday bo‘ladi. Egamiz sizlarni Misrdan O‘z qudrati bilan olib
chiqqanini bu bayram eslatib turadi. Egamizning ta’limotini bolalaringizga
o‘rgatishingiz uchun bayramni nishonlanglar. 10 Sizlar belgilangan vaqtda yillar osha
ushbu qonun–qoidaga rioya qilib boringlar.

To‘ng‘ich erkaklarni Egamizga bag‘ishlash to‘g‘risida ko‘rsatmalar

11 Egamiz o‘zlaringizga va ota–bobolaringizga ont ichib va’da bergan Kan’on
xalqlarining yurtiga sizlarni olib keladi. O‘sha yurtni sizlarga beradi. Shundan keyin
12 to‘ng‘ich o‘g‘illaringizni, hamma chorvangizning birinchi erkak bolasini Unga
beringlar. Bularning hammasi Egamiznikidir. 13 Eshakning* tug‘ilgan birinchi erkak
bolasini ham Egamizdan bir qo‘zi yoki uloqchani atash evaziga sotib olinglar. Agar
eshakni qaytarib sotib olmaslikka qaror qilsangiz, eshakning bo‘ynini sindirib
o‘ldirishingiz kerak. Sizlar Egamizdan hamma to‘ng‘ich o‘g‘illarni ham qaytarib sotib
olishingiz lozim*. 14 Kelajakda farzandlaringiz sizdan:
— Bu udumning ma’nosi nima? — deb so‘rashganda shunday javob beringlar:
— Egamiz bizni Misrdagi qullikdan qudratli qo‘li bilan olib chiqqan. 15 Fir’avn o‘jarlik
qilib, ketishimiz uchun bizga ijozat bermaganda, Egamiz Misr yurtidagi hamma
to‘ng‘ichlarni — odamlarning to‘ng‘ichidan tortib, hayvonlarning birinchi erkak
bolasigacha o‘ldirgan. Mana shuning uchun ham hayvonlarning birinchi erkak bolasini
Egamizga qurbonlik qilamiz. To‘ng‘ich o‘g‘illarimizni esa qaytarib sotib olamiz.
16 Bu bayram qo‘lingizdagi yoki peshanangizdagi bir belgiday bo‘lib qoladi. Egamiz

bizni qudratli qo‘li bilan Misrdan olib chiqqanini shu bayram sizlarga eslatib turadi.”

Ustun shaklidagi bulut va alanga

17 Xalq urushga duch kelib qolsa, Misrga qaytib ketmasin, deb o‘yladi Xudo. Shuning
uchun fir’avn Isroil xalqiga ijozat bergandan keyin, Filist xalqining yurti orqali o‘tadigan
yo‘l* to‘g‘ri Kan’onga olib borsa ham, Xudo xalqni bu yo‘ldan boshlab ketmadi. 18 Xudo
xalqni Qizil dengizga* sahro bo‘ylab aylanma yo‘l orqali olib ketdi.

Isroil xalqi Misrdan chiqqanda, guruhlarga bo‘lingan holda yo‘lga tushdi. 19 Muso
Yusufning suyaklarini o‘zi bilan oldi. Yusuf Isroil urug‘lariga qasam ichdirib: “Xudo
sizlarni qutqargani albatta keladi, o‘shanda mening suyaklarimni bu yerdan olib
ketinglar”, degan edi*.

20 Isroil xalqi Suxotdan chiqqandan keyin, sahro etagidagi Etxamda qarorgoh qurdi.
21 Egamiz kunduzi ustun shaklidagi bulut ichida, kechasi ustun shaklidagi alanga ichida
ularning oldida yurib, yo‘llarini yoritib yo‘l ko‘rsatib bordi. Shu tariqa Isroil xalqi
hamma vaqt — kunduzi ham, kechasi ham yo‘l yura oldi. 22 Kunduzi bulut ustuni,
kechasi alanga ustuni xalqning oldidan bir dam nari ketmadi.

14–BOB

Egamiz Qizil dengizda Isroil xalqini qutqaradi

1 Egamiz Etxamda Musoga shunday dedi:

2 — Isroil xalqiga: “Migdol bilan dengiz o‘rtasidagi Piy–Xaxiro‘t yaqiniga qaytib
boringlar”, deb ayt. U yerda Baal–Zafo‘n qarshisidagi Qizil dengiz* sohili bo‘ylab chodir
tikishsin. 3 O‘shanda fir’avn: “Isroil xalqi yurtda adashib qolibdi, sahro ularning ketishiga
xalaqit beryapti”, deb o‘ylaydi. 4 Fir’avn sizlarni ta’qib qilsin deb, Men uning yuragini
tosh qilib qo‘yaman. Fir’avn va uning lashkari ustidan g‘alaba qilaman. Shu orqali
shuhratga erishaman. Ana o‘shanda Egangiz Men ekanligimni Misr xalqi bilib oladi.

Isroil xalqi Egamiz aytganday qildi. 5 Fir’avnga: “Isroil xalqi qochib ketibdi”, deb
xabar yetkazishdi. Fir’avn va a’yonlarining Isroil xalqi to‘g‘risidagi niyatlari o‘zgardi:
“Nima qilib qo‘ydik–a? Isroil xalqiga ketishga ijozat berib, qullarimizdan ayrilib
qolibmiz–ku!” deyishdi. 6 Fir’avn jang aravalarini tayyorlatdi, lashkarini yoniga oldi. 7 U
Misrdagi hamma jang aravasini, shu bilan birga, olti yuzta sara jang aravasini ham yo‘lga
otlantirdi. Har bir jang aravasining lashkarboshisi bor edi. 8 Egamiz Misr fir’avnining
yuragini tosh qilib qo‘ydi. Fir’avn Isroil xalqining ortidan quvdi. Isroil xalqi shaxdam
qadam bilan Misrdan chiqib ketayotgan edi. 9 Misrliklar — fir’avnning jamiki lashkari,
otlari, aravakashlar va jang aravalari bilan Isroil xalqining ortidan tushdi. Dengiz
qirg‘og‘ida Baal–Zafo‘n qarshisida — Piy–Xaxiro‘t yaqinida Isroil xalqiga yetib oldilar.
Isroil xalqi bu yerda qarorgoh qurgan edi.

10 Fir’avn tobora yaqinlashib kelardi. Isroil xalqi orqalariga qarab Misrliklar quvib
kelayotganini ko‘rdilar–u, sarosimaga tushib qoldilar. Ular Egamizga iltijo qilib, madad
so‘radilar. 11 Keyin Musoga aytdilar:

— Bizni sahroga o‘ldirgani olib kelgan ekansan–da. Misrda biz uchun qabriston
yetarli emasmidi?! Bizni Misrdan olib chiqib, nima qilib qo‘yding–a?! 12 Misrda
ekanligimizda shunga o‘xshash yomon hodisalar yuz berishini aytmaganmidik?! Biz:
“Misrliklarga qul bo‘lib xizmat qilib yuraveraylik, sahroda o‘lib ketganimizdan ko‘ra,
ularga xizmat qilganimiz yaxshi”, deb aytgan edik–ku!

13 Ammo Muso:
— Qo‘rqmanglar! — dedi. — Joyingizda to‘xtab, qarab turinglar. Hozir ko‘rasizlar,
Egamiz sizlarni qanday qilib qutqarar ekan. Hozir qarshingizda turgan Misrliklarni
qaytib ko‘rmaysizlar. 14 Xotirjam bo‘linglar, Egamiz sizlar uchun jang qiladi.
15 Shu payt Egamiz Musoga gapirdi:
— Nimaga Menga iltijo qilib, madad so‘rayapsan? Isroil xalqiga ayt, oldinga qarab
ketaversin. 16 Tayog‘ingni ko‘tarib, qo‘lingni dengiz ustiga uzat, suvni ikki tomonga ayir.
Shunda Isroil xalqi quruq yer ustida yurib, dengizdan o‘tadi. 17-18 Misrliklar sizlarning
ortingizdan dengizga borsin deb, Men ularning yuragini tosh qilib qo‘yaman. Fir’avn,
uning lashkari, aravakashlari va jang aravalari ustidan g‘alaba qilib shuhratga
erishaman. Men ularni yer bilan yakson qilganimda Egangiz Men ekanligimni Misr xalqi
bilib oladi.
19 Isroil xalqi oldida borayotgan Xudoning farishtasi joyini o‘zgartirib, ularning
orqasiga o‘tdi. Isroil xalqining oldidagi bulut ustuni ham joyini o‘zgartirdi. Bulut ustuni
orqaga o‘tib, 20 Misr lashkari bilan Isroil xalqi o‘rtasida turib qoldi. Bulut ustuni
Misrliklar turgan tomonni zimiston va bulutli, Isroil xalqi turgan tomonni esa yop–
yorug‘ qilib turdi. Shuning uchun Misr lashkari tun bo‘yi Isroil xalqiga yaqin kela olmadi.
21 Muso qo‘lini dengiz tomonga uzatdi. Shundan keyin tun bo‘yi Egamiz sharqdan
kuchli shamol estirib, dengizni ikki tomonga ayirdi, dengizni quruq yerga aylantirdi. Suv
ikki tomonga surildi. 22 Shundan keyin Isroil xalqi dengizdagi quruq yerdan yurib, o‘ta
boshladi. Suv Isroil xalqining o‘ng tomonida ham, chap tomonida ham devor bo‘lib
turardi. 23 Misrliklar Isroil xalqining ortidan quvdi. Fir’avnning hamma otlari,
aravakashlari va jang aravalari dengizning o‘rtasiga tushdi. 24 Tong payti Egamiz alanga
va bulut ustunidan Misr lashkariga qarab, ularni sarosimaga soldi. 25 Jang aravalarining
g‘ildiraklari botib qoldi*. Natijada Misrliklar aravalarini zo‘rg‘a tortib ketdilar. Shunda
Misrliklar: “Bu yerdan qochib qolaylik! Isroil xalqi uchun ularning Egasi jang qilyapti! U
bizga qarshi!” deb shovqin soldilar.
26 Keyin Egamiz Musoga:
— Qo‘lingni dengizga uzat! — deb amr berdi. — Suv Misrliklarning, ularning
aravakashlari va jang aravalari ustiga qaytsin!
27 Muso qo‘lini dengizga uzatdi. Tong payti dengiz suvi asl holiga qaytdi. Misrliklar
suvdan qutulmoqchi bo‘lib qochayotgan edi, Egamiz ularni dengizning o‘rtasiga silkib
otdi. 28 Suv asl holiga qaytdi. Fir’avnning aravakashlarini va jang aravalarini, Isroil
xalqining ortidan quvib, dengiz o‘rtasiga tushgan hamma Misr lashkarini g‘arq qildi.
Ulardan birortasi ham tirik qolmadi. 29 Isroil xalqi esa dengiz o‘rtasida quruq yerdan
yurib o‘tdi. Suv o‘ng tomonda ham, chap tomonda ham Isroil xalqiga devor bo‘lib
turardi.
30 Shunday qilib, Egamiz o‘sha kuni Isroil xalqini Misrliklarning qo‘lidan qutqardi.
Isroil xalqi dengiz qirg‘og‘ida Misrliklarning jasadlarini ko‘rdi. 31 Egamiz buyuk qudrati
bilan Misrliklarni mag‘lub qilganini Isroil xalqi ko‘rgach, Undan qo‘rqadigan bo‘ldilar.
Ular Egamizga va Uning quli Musoga ishondilar.

15–BOB

Muso va Maryamning g‘alaba qo‘shig‘i

1 Shundan keyin Muso va Isroil xalqi Egamizga quyidagi qo‘shiqni kuyladi:

“Egamizni madh etib kuylayman. U buyuk g‘alaba keltirdi.
Otlarni, aravakashlarni dengizga uloqtirdi.
2 Egamiz mening kuch–qudratimdir*.
U mening qutqaruvchimdir.
U mening Xudoyimdir, men Uni olqishlayman,
Otamning Xudosidir, men Uni ulug‘layman.
3 Ha, U jangchidir, U Egamizdir*.
4 Fir’avnning lashkarini, jang aravalarini Egamiz dengizga uloqtirdi.
Uning sara lashkarboshilarini Qizil dengizga* cho‘ktirdi.
5 Dengiz qa’ri ularni ko‘mdi.
Ular tosh singari tubsizlikka tushib ketdilar.

6 Ey Egamiz, Sening qudrating azimdir.
Ey Egamiz, Sening o‘ng qo‘ling dushmanni rosa ezdi.
7 Sen buyuk g‘alaba qozonding.
Dushmanlaringni yiqitib,
Ularga g‘azabingni sochgan eding,
G‘azabing ularni xas–cho‘p singari yondirib tashladi.
8 Qahrli nafasingdan suv bir joyga yig‘ilib,
Devor kabi tik turib qoldi,
Dengizning qa’ri qattiq yer bo‘lib qoldi.
9 Shunda dushman gerdayib aytdi:
«Orqalaridan tushaman, quvib yetaman.
O‘ljani baham ko‘raman. Bulardan ko‘nglim qoniqadi.
Qilichimni yalang‘ochlab, ularni yana qul qilaman.»
10 Qahrli nafasingdan dengiz ularni ko‘mib yubordi.
Ular bahaybat suvda qo‘rg‘oshinday g‘arq bo‘ldilar.

11 Xudolar orasida Senga o‘xshagani bormi, ey Egamiz?!
Kim Senga o‘xshar?!
Muqaddasliging bilan ulug‘vorsan Sen,
Qo‘rqinchli ishlaring bilan hamdu sanoga ilhomlantirasan,
Sen ajoyibotlar ko‘rsatasan.
12 Sen o‘ng qo‘lingni uzatgan eding,
G‘animlarni yer yutdi.

13 O‘zing qutqargan o‘sha xalqni Sen sodiq sevging bilan olib borasan.
Muqaddas makoningga* qudrating bilan ularni yetaklab borasan.
14 Xalqlar eshitib buni, titrashadi:
Filist xalqi vahimaga tushib qoladi.
15 Edom urug‘boshilari qo‘rquvga tushadi–ku,

Mo‘ab beklarini titroq bosadi–ku!
Kan’ondagi xalqlar umidsizlikka tushadi–ku!
16 Ularni qo‘rquv va dahshat qamrab olar.
Ey Egamiz, Sening xalqing o‘tib ketguncha,
O‘zing ega bo‘lgan bu xalq o‘tib ketguncha,
Ular bilaging kuchi oldida toshday qotib qoladi.
17 Xalqingni O‘z tog‘ingga olib kelasan,
Ularni joylashtirasan uying uchun tanlagan yerga, ey Egamiz!
Qo‘llaring o‘rnatgan muqaddas maskaningga*
Olib kirib joylashtirasan, ey Rabbiy!
18 Egamiz abadulabad shoh bo‘lib hukmronlik qiladi.”

19 Fir’avnning otlari, aravakashlari va jang aravalari dengiz o‘rtasiga tushdi. Shunda Egamiz ularning ustiga dengiz suvlarini qaytarib olib keldi. Isroil xalqi esa dengiz o‘rtasidagi quruq yerdan o‘tib ketdi. Shu bois Muso va xalq qo‘shiq kuyladi.
20 Horunning opasi Maryam payg‘ambar childirmani qo‘liga oldi. Hamma ayollar unga ergashib, childirmalarini qo‘llariga olib, o‘ynadilar. 21 Maryam quyidagi naqoratni kuylab, ularga boshchilik qildi:

“Egamizni madh etib kuylang. U buyuk g‘alaba keltirdi.
Otlarni, aravakashlarni dengizga uloqtirdi.”

Taxir suv

22 Muso Isroil xalqini Qizil dengizdan boshlab chiqqandan keyin, ular Shur sahrosiga bordilar. Ular sahroda uch kun yursalar ham, suv topa olmadilar. 23 Undan keyin Maroga bordilar. Ammo Maroning suvi taxir bo‘lgani uchun icholmadilar. Shuning uchun ham u yerga Maro* deb nom berilgan edi. 24 Xalq esa: “Endi nima ichamiz?” deb Musoga ming‘irlab nolidi. 25 Muso esa Egamizga iltijo qilgan edi, Egamiz Musoga bir cho‘pni ko‘rsatdi. Muso cho‘pni olib suvga tashlagan edi, suv ichishga yaroqli bo‘lib qoldi. Shunday qilib, o‘sha yerda Egamiz Isroil xalqini sinadi. Egamiz ularga yashash qonun–qoidasini berdi. 26 U Isroil xalqiga shunday dedi: “Agar Men, Egangiz Xudoga hushyor bo‘lib quloq solsangiz, Mening oldimda to‘g‘ri ishlar qilsangiz, amrlarimga itoat etsangiz, hamma qonunlarimga rioya qilsangiz, o‘shanda Men Misrliklarni duchor qilgan xastaliklarning birortasiga ham sizlarni duchor qilmayman. Sizlarga shifo beradigan Egangiz Menman.”
27 Shundan so‘ng Isroil xalqi Ilim degan joyga keldi. U yerda o‘n ikkita buloq, yetmishta palma daraxti bor edi. Ular buloq bo‘yida qarorgoh qurdilar.

16–BOB

Manna va bedanalar

1 Isroil xalqining butun jamoasi Ilimdan chiqib jo‘nadi. Ular Misrdan chiqqanlaridan keyin bir oy o‘tgach*, Ilim bilan Sinay tog‘i oralig‘idagi Sin sahrosiga* yetib keldilar.
2 Ular sahroda turar ekanlar, hammalari ming‘irlab Muso bilan Horundan nolishdi:
3 “Qaniydi Egamiz bizni Misrda o‘ldirib qo‘ya qolganda edi! Biz Misrda go‘sht solingan qozon boshida o‘tirardik, to‘ygunimizcha non yerdik. Sizlar esa, butun jamoa ochlikdan

oʻlib ketsin deb, bizni sahroga olib keldingiz.”

4 Shunda Egamiz Musoga:

— Nonni* sizlarga osmondan yogʻdiraman! — dedi. — Xalq har kuni chiqib, kunda kerak boʻladigan nonini yigʻishtirib oladi. Shu yoʻl bilan bu xalqni sinayman. Ular Mening koʻrsatmalarimga rioya qiladilarmi, yoki yoʻqmi, koʻraman. 5 Har haftaning oltinchi kuni* esa kunda toʻplaganlariga qaraganda ikki hissa koʻp non yigʻishtirib olib, tayyorlab qoʻyadilar.

6-8 Muso bilan Horun jamiki Isroil xalqiga shunday deb aytdilar:

— Sizlar mingʻirlab Egamizdan noligan edingiz, U eshitdi. Endi U kechqurun sizlarga goʻsht beradi. Ertaga ertalab moʻl qilib non beradi. Egamizning buyuk qudratini shunda koʻrasizlar. Sizlarni Misrdan olib chiqqan Egamiz ekanini bilib olasizlar. Ammo biz kim boʻlibmizki, mingʻirlab bizdan noliysizlar?! Biz bor–yoʻgʻi Egamizning xabarchilarimiz, xolos. Bizdan noliganlaringizda, sizlar aslida bizdan emas, Egamizdan noligan boʻlasizlar.

9 Shundan soʻng Muso Horunga dedi:

— Isroil xalqining butun jamoasiga ayt. Egamizning huzuriga kelsin. Egamiz ularning mingʻirlab noliganini eshitdi.

10 Horun Isroil xalqining butun jamoasiga shu gaplarni aytib boʻlishi bilanoq, xalq sahroga qaradi. Shu payt Egamiz ulugʻvorligini bulut ichida zohir qildi. 11 Keyin Egamiz Musoga gapirdi:

12 — Men Isroil xalqining mingʻirlab noliganini eshitdim. Ularga shu gaplarni yetkaz: “Oqshom goʻsht yeysizlar, ertalab esa toʻyguningizcha non yeysizlar. Oʻshanda Egangiz Xudo Men ekanligimni bilib olasizlar.”

13 Shu kuni oqshomda bedanalar uchib kelib, qarorgohni bosib ketdi. Ertasiga ertalab qarorgoh atrofiga shudring tushdi. 14 Shudring koʻtarilgach, yer yuzi laylak qor uchquniga oʻxshash, qirovsimon bir narsa bilan qoplandi. 15 Isroil xalqi bu narsani koʻrganda, nima ekanini bilolmasdan: “Bu nima?” deb bir–birlaridan soʻrayverdilar.

— Tanovul qilishlaringiz uchun Egamiz sizlarga bergan non shudir, — dedi Muso Isroil xalqiga. 16 — Egamiz shunday amr bergan: “Har bir xonadon oʻzi yeydigan nonni olsin. Xonadondagi har bir jon uchun bir omirdan* yigʻib olsin.”

17 Isroil xalqi Egamiz amr etganday qildi. Birov koʻproq, birov ozroq yigʻib oldi. 18 Har bir odam uchun omir bilan oʻlchaganlarida, koʻp yigʻib olganlardan hech narsa ortib qolmadi, oz yigʻib olganlar uchun esa yetarli boʻldi. Har bir xonadon keraklisini oldi.
19 Muso yana xalqqa: “Hech kim bu mannadan ertalabgacha qoldirmasin”, — dedi.
20 Ammo ba’zilar Musoning gapiga quloq solmay, ertalabgacha qoldirgan edilar, qoldirgan mannaga qurt tushib, sasiy boshladi. Shunda Muso oʻsha odamlardan gʻazablandi.

21 Mannani har bir xonadon har kuni ertalab ehtiyojiga yarashasini toʻplab olardi. Quyosh yerni qizdirgandan keyin esa, yerda qolgani erib ketardi. 22 Oltinchi kuni esa mannani ikki hissa — jon boshi uchun ikki omirdan yigʻib oldilar. Jamoa oqsoqollari bu toʻgʻrida Musoga xabar berganlarida, 23 Muso ularga aytdi*:

— Ertaga Shabbat kuni boʻlgani uchun oltinchi kuni ikki barobar koʻproq manna olish haqida Egamiz xalqqa amr bergan. Shabbat kuni ish qilmay dam olinglar, bu kun Egamizga ajratilgan kundir. Shuning uchun yopadiganingizni bugun yopib olinglar, qaynatadiganingizni bugun qaynatib olinglar. Ortganini saqlab, ertangi kunga

qoldiringlar.
24 Shunday qilib, Muso buyurganday, ortganini ertasiga qoldirgan edilar, qolgani na
sasidi, na qurtladi.
25 — Bugungi mannangiz shudir, — dedi Muso. — Chunki bugun Egamizga atalgan
Shabbat kunidir. Bugun yerda hech narsa bo‘lmaydi. 26 Olti kun manna yig‘ishtirib
olasizlar. Ammo yettinchi kun — Shabbat kuni aslo manna topib bo‘lmaydi.
27 Yettinchi kuni ham ba’zilar manna yig‘ishtirgani tashqariga chiqdilar, lekin
topolmadilar. 28 Shunda Egamiz Musoga:
— Qachongacha Mening amrlarimga va ko‘rsatmalarimga itoat etmay yurasizlar?! —
dedi. 29 — Men, Egangiz, yettinchi kunni — Shabbatni dam olish kuni qilib, sizlarga
berganimni anglab yetmaysizlarmi?! Mana, sizlarga ikki kunga yetarli mannani oltinchi
kuni beryapman. Yettinchi kuni har kim uyida bo‘lib, dam olishi lozim.
30 Shunday qilib, xalq yettinchi kuni ishlamadi.

Isroil xalqi mannadan xotira uchun saqlab qo‘yadi

31 Isroil xalqi bu yegulikka manna* deb nom qo‘ydilar. U kashnich urug‘iga o‘xshardi,
rangi esa oqish, mazasi asal qo‘shilgan chalpakni eslatardi. Muso Isroil xalqiga aytdi:
32 — Egamiz shunday amr bergan: “Bir omir mannani kelgusi avlodlar uchun saqlab
qo‘yinglar, toki Men sizlarni Misrdan olib chiqqanimdan keyin sahroda o‘zlaringizga
yedirgan nonni ular ko‘rsinlar.”
Shundan keyin Muso Horunga aytdi:
33 — Bir idish olib, ichiga bir omir manna solgin–da, Egamizning huzuriga qo‘y*, toki
kelgusi avlodlarga saqlanib qolsin.
34 Egamiz Musoga amr etganday, Horun, mannani saqlab qo‘yamiz deb, uni Ahd
sandig‘ining* oldiga qo‘ydi.
35 Isroil xalqi keyingi qirq yil davomida, Kan’on yurtiga yetib borib
o‘rnashgunlaricha, manna tanovul qildilar*.

36 (Mannani o‘lchash uchun foydalanilgan idish omir deb aytilgan. Bu idish taxminan
to‘rt kosaning* hajmiga to‘g‘ri kelgan.)

17–BOB

Qoyadan chiqqan suv

1 Isroil xalqining butun jamoasi har doim Egamizning amriga rioya qilib, bir joydan
boshqa joyga ko‘chib yurib*, Sin sahrosidan* ketdi. Isroil xalqi Rafidimda* qarorgoh
qurgan edi, lekin u yerda ichgani suv yo‘q ekan. 2 Ular Musoga ta’na qila boshladilar.
“Bizga ichgani suv ber”, deb undan talab qildilar. Shunda Muso:
— Nimaga menga ta’na qilyapsizlar?! — dedi. — Nima uchun Egamizni
sinayapsizlar?!
3 Lekin xalq chanqagan edi. “Nimaga bizni Misrdan olib chiqding?! O‘zimizni,
bolalarimizni, chorvamizni suvsizlikdan o‘ldirish uchun olib chiqqan ekansan–da?!” deb
Musoni aybladilar.
4 — Bu xalqni nima qilay? — deb iltijo qildi Muso Egamizga. — Yana bir ozdan keyin
ular meni toshbo‘ron qilishadi–ku!
5 — Isroil oqsoqollaridan ba’zilarini yoningga olib, xalqning oldida bor! — deb amr

berdi Egamiz Musoga. — Nil daryosiga urgan tayog‘ingni ham o‘zing bilan ol. 6 Men sening oldingda — Sinay tog‘idagi* qoyaning tepasida turaman. Sen tayoqni qoyaga ur, qoyadan suv otilib chiqadi. Keyin xalq ichadi.

Muso Isroil oqsoqollarining ko‘zi oldida Egamiz aytganday qildi. 7 Shunday qilib, Muso o‘sha joyga Massax va Mariva* deb nom berdi. Isroil xalqi u yerda Muso bilan janjal qilgan, “Egamiz biz uchun g‘amxo‘rlik qiladimi, yo‘qmi?” deb Xudoni sinagan edi.

Isroil xalqi Omolek xalqini yengadi

8 Omolek xalqi Rafidimga kelib, Isroil xalqiga urush ochdilar. 9 Shunda Muso Yoshuaga:

— Odamlardan tanlab olgin–da, borib, Omoleklarga qarshi urushga chiq! — dedi. — Ertaga men tepalikning ustida bo‘laman. Xudo, ol, deb tayinlagan tayoq* qo‘limda bo‘ladi.

10 Yoshua Muso buyurganday qilib Omoleklar bilan jang qilgani bordi. Muso, Horun va Xur tepalikning ustiga chiqishdi. 11 Muso qo‘llarini ko‘targanda, Isroil xalqi g‘olib kelar, tushirganda esa Omoleklar g‘olib kelardi. 12 Oxiri Musoning qo‘llari toliqdi. Shunda Horun bilan Xur Musoga tosh keltirib qo‘yib berdilar. Muso tosh ustiga o‘tirdi. Keyin Musoning qo‘llarini bir tomondan Horun, bir tomondan Xur yuqoriga ko‘tarib turdi. Quyosh botguncha, Musoning qo‘llarini yuqoriga ko‘tarib turaverdilar. 13 Shunday qilib, Yoshua Omoleklarni yengib, qilichdan o‘tkazdi.

14 Shundan keyin Egamiz Musoga aytdi:

— Bu g‘alabani xotira qilib, yozib qo‘y, Mening quyidagi va’damni ham kirit: “Men Omoleklarning nomini yer yuzidan o‘chiraman.” Keyin buni ovoz chiqarib Yoshuaga o‘qib ber.

15 Muso bir qurbongoh qurdirib, bu qurbongohga: “Egam bayrog‘imdir”* deb nom berdi. 16 “Omoleklar Egamizning taxtiga qarshi qo‘llarini ko‘tarishga jur’at qilganlari uchun, Egamiz doimo ularga qarshi urush qiladi”*, dedi.

18–BOB

Yatro Musoni ziyorat qiladi

1 Midiyon yurtining ruhoniysi Yatro Musoning qaynatasi edi. Xudo Musoga va O‘z xalqi Isroilga hamma qilganlarini, Egamiz Isroil xalqini Misrdan qanday qilib olib chiqqanini u eshitdi. 2 Muso xotinini otasi yoniga jo‘natib yuborganda*, Yatro Musoning xotini Zippura bilan 3 ikkala o‘g‘lini yoniga olgan edi. Muso: “Men begona yurtda musofir bo‘lib qoldim”, deb to‘ng‘ich o‘g‘liga Gershom* deb ism qo‘ygan edi. 4 So‘ngra: “Ota–bobolarimning Xudosi menga madad berdi, meni fir’avnning qilichidan qutqardi*”, deb ikkinchi o‘g‘liga Eliazar* deb ism qo‘ygandi.

5 Qaynatasi Musoning xotini va o‘g‘illarini Xudoning muqaddas tog‘i* etagiga — sahroda Muso tikkan chodirga boshlab keldi. 6 Yatro Musoga: “Men, qaynatang Yatro, xotining va ikkala o‘g‘ling bilan birga sening yoningga boryapmiz”, deb xabar berdi. 7 Muso qaynatasini kutib olgani chiqdi va unga ta’zim qilib, o‘pdi. Ikkovlari bir–biridan hol–ahvol so‘rab, chodirga kirishdi. 8 Egamiz Isroil xalqi uchun fir’avnni va Misr xalqini nimalar qilganini, Isroil xalqi yo‘lda chekkan azob–uqubatlarni, Egamiz ularni qanday qutqarganini Muso qaynatasiga aytib berdi. 9 Egamiz Isroil xalqiga qilgan yaxshiliklari uchun, ularni Misrliklarning qo‘lidan qutqargani uchun Yatro sevinib, shunday dedi:

10 — Sizlarni Misrliklarning va fir’avnning qo‘lidan qutqargan Egamizga hamdu
sanolar bo‘lsin! Isroil xalqini Misrliklarning zulmidan U qutqardi. 11 Egamiz boshqa
hamma xudolardan ulug‘ ekanini endi bilaman. Egamiz O‘z xalqini takabbur
Misrliklarning qo‘lidan xalos qildi.
12 So‘ngra Musoning qaynatasi Yatro Xudoga kuydiriladigan qurbonlik va boshqa
qurbonliklar keltirdi. Horun va barcha Isroil oqsoqollari Musoning qaynatasi bilan
Xudoning huzurida muqaddas taom yegani kelishdi.

Yatroning maslahati

13 Ertasi kuni Muso hukm kursisiga o‘tirib, xalqning janjallarini ajrim qila boshladi.
Xalq Musoning atrofida ertalabdan kechgacha tik turdi. 14 Qaynatasi Musoning xalq
uchun qilayotgan hamma ishlarini ko‘rgach, aytdi:
— Nimaga shuncha ishni bir o‘zing qilyapsan? Odamlar sendan yordam so‘rash
uchun kun bo‘yi tik turishdi.
15 Shunda Muso qaynatasiga aytdi:
— Odamlar Xudoning hukmini bilish uchun mening oldimga kelishadi. 16 Qachon bir
janjalli ish bo‘lsa ham mening oldimga kelishadi. Men esa ikkala tomon o‘rtasida qaror
chiqarib, Xudoning qonun–qoidalarini ularga aytaman.
17 — Bu yo‘l yaxshi emas, — dedi qaynatasi Musoga. 18 — Ham o‘zingni, ham
yoningdagi xalqni qiynayapsan. Bu ish juda og‘ir yuk, bir o‘zing bajara olmaysan.
19 Gapimga quloq sol, senga bir maslahat berayin: Xudo senga yor bo‘lsin. Xudoning
huzurida xalq uchun sen vositachi bo‘lishing kerak. Xalqning bahs–munozaralarini
Xudoga sen yetkazishing lozim. 20 Xudoning qarorini xalqqa sen ayt, Xudoning qonun–
qoidalarini o‘rgat, ular qanday qilib to‘g‘ri hayot kechirishlari kerakligini ko‘rsat.
21 Ammo bularga qo‘shimcha qilib, sen Xudodan qo‘rqqan, diyonatli, tamadan
nafratlanadigan, layoqatli odamlarni tanlab ol. Ularni xalq tepasiga mingboshi, yuzboshi,
ellikboshi, o‘nboshi qilib tayinla. 22 Bu odamlar hamma haq masalalar ustidan qaror
qilib, xalqqa xizmat qilishsin. Juda muhim yoki juda qiyin masalalarni esa senga olib
kelishlari mumkin. Kichikroq ishlarni o‘zlari ko‘rib chiqaversin. Ular sen uchun ishni
osonroq qilib, og‘irlikni ko‘tarishda senga yordam beradilar. 23 Agar Xudo shu
maslahatlarimni yuragingga solsa, sen tazyiqlarga bardosh bera olasan. Hamma
tinchgina o‘z joyiga ketadi.
24 Muso qaynatasining gapiga quloq soldi. U nima aytgan bo‘lsa, hammasini qildi.
25 Isroil xalqi orasidan layoqatli odamlarni tanlab oldi. O‘sha odamlarni mingboshi,
yuzboshi, ellikboshi, o‘nboshi qilib tayinladi. 26 Ular hamma masalalarni adolatli hal
qilardilar. Qiyin masalalarni Musoga olib kelishar, kichikroq ishlarni esa o‘zlari qarab
chiqishardi. 27 Shundan keyin Muso qaynatasiga ijozat berdi. Yatro o‘z yurtiga qaytib
ketdi.

19–BOB

Isroil xalqi Sinay tog‘ida

1-2 Isroil xalqi Rafidimdan* ketdi. Misrdan chiqqandan keyin uchinchi oyning*
birinchi kuni ular Sinay sahrosiga yetib keldilar. Ular Sinay tog‘i etagida qarorgoh
qurdilar. 3 Muso toqqa — Xudoning huzuriga chiqdi. Egamiz tog‘dan uni chaqirib,
shunday dedi:

— Yoqub nasliga — Isroil xalqiga shunday deb ayt: 4 “Men, Egangiz, Misrliklarni
nima qilganimni koʻrgansizlar. Burgut oʻz bolalarini qanotlari ustida koʻtarib
keltirganday, Men sizlarni koʻtarib, huzurimga olib kelganimni ham koʻrgansizlar. 5 Endi
Mening amrlarimga chin dildan itoat etsangiz, ahdimga rioya qilsangiz, sizlar Mening
xalqim, boshqa xalqlar orasida xazinam boʻlasizlar. Butun yer Menikidir, 6 ammo sizlar
Men, Egangizga, xizmat qiladigan ruhoniylar shohligi, muqaddas bir xalq boʻlasizlar.”
Isroil xalqiga sen yetkazadigan xabar shudir.

7 Muso kelib, xalq oqsoqollarini chaqirdi. Egamiz unga, ayt, deb amr etgan hamma
gaplarni aytdi. 8 Jamiki xalq bir ovozdan: “Egamizning hamma aytganlarini bajaramiz”,
deb javob berdi. Muso xalqning javobini Egamizga qaytarib olib keldi. 9 Egamiz Musoga:

— Men sening oldingga qalin bulut ichida kelaman, — dedi, — toki Men senga
gapirayotganimni xalq eshitsin. Shunda xalq senga har doim ishonadi.

Muso xalqning gapini Egamizga aytganda, 10 Egamiz dedi:

— Bor, bugun va ertaga xalq poklansin*, kiyimlarini yuvsin. 11 Shunday qilib, ertadan
keyingi kunga tayyor boʻlishsin. Oʻsha kuni Men, Egangiz, Sinay togʻiga tushaman. Jamiki
xalq Meni oʻsha yerda koʻradi. 12 Togʻ atrofiga chegara qilib qoʻy, toki xalq chegarani
bosib oʻtmasin. Xalqqa ayt: “Toqqa chiqmanglar, togʻning yaqiniga ham bora
koʻrmanglar. Agar birortasi toqqa qadam qoʻysa, oʻshaning jazosi oʻlimdir. 13 Oʻsha
odamni toshboʻron qilib yoki oʻq otib oʻldiringlar, unga zinhor qoʻl tekkizmanglar.
Hayvon boʻladimi yoki inson boʻladimi, oʻlimga hukm qilinsin.” Burgʻu ovozi qattiq
chalingandan keyin esa xalq toqqa chiqsa boʻladi.

14 Shunday qilib, Muso togʻdan xalqning yoniga tushdi, xalq poklandi, kiyimlarini
yuvdi. 15 Keyin u xalqqa:

— Uchinchi kunga tayyor boʻlinglar, xotinlaringizga yaqinlashmanglar, — deb aytdi.

16 Uchinchi kuni ertalab momaqaldiroq boʻlib, chaqmoq chaqdi. Togʻning ustini qalin
bulut qopladi. Burgʻu ovozi juda qattiq chalindi. Qarorgohdagi jamiki xalqni titroq bosdi.
17 Muso xalqni Xudo bilan uchrashtirgani qarorgohdan olib chiqdi. Xalq togʻning etagida
turdi. 18-20 Keyin Egamiz Sinay togʻiga — togʻ choʻqqisiga tushdi. Egamiz Sinay togʻiga
alanga ichida tushib kelgani uchun butun togʻ tutayotgan edi. Togʻ qattiq silkinganda,
tandirdan tutun chiqqani singari, togʻdan ham tutun chiqayotgan edi. Burgʻu ovozi
qattiqroq chiqqani sari, Muso ham gapirardi. Xudo unga momaqaldiroq orasidan turib
javob berardi. Egamiz Musoni togʻ choʻqqisiga chaqirdi. Muso u yerga chiqdi. 21 Keyin
Egamiz Musoga aytdi:

— Pastga tush, xalqni ogohlantir, ular chegarani bosib oʻtishmasin. Ular Men,
Egangizni koʻrgani kelmasliklari lozim, shunday qilganlar nobud boʻladi. 22 Hatto doimo
Mening yaqinimga keladigan ruhoniylar* ham oʻzlarini poklashlari lozim. Aks holda,
Men ularni qirib tashlayman.

23 Shunda Muso Egamizga aytdi:

— Xalq Sinay togʻiga chiqmaydi. Oʻzing: “Togʻ atrofiga chegara qoʻy, bu togʻni
muqaddas saqla”, deb meni ogohlantirgan eding.

24 Egamiz unga:

— Bor, pastga tush! — dedi. — Oʻzing bilan birga Horunni olib kel. Ammo ruhoniylar
yoki xalq, toqqa chiqamiz, deb chegarani oyoq osti qilishmasin. Aks holda, ularni Men
oyoq osti qilaman.

25 Shunday qilib, Muso xalqning yoniga tushdi. Egamizning aytganlarini ularga

gapirib berdi.

20–BOB

O‘nta amr

1 Keyin Xudo quyidagi so‘zlarni aytdi:

2 “Men sizlarni Misrdagi qullikdan olib chiqqan Egangiz Xudoman.

3 Mendan boshqa xudolarga sajda qilmang.

4 O‘zlaringizga hech qanday butni yasamang. Osmonda yo yerda yo yer ostidagi suvda mavjud bo‘lgan biror narsaning shaklini yasamang. 5 O‘sha xudolar yoki butlarga* sajda qilmang, xizmat qilmang. Men, Egangiz Xudo, sizlarning sevgingizni boshqa xudolar bilan baham ko‘rmaydigan Xudoman. Mendan nafratlanadiganlarni jazolayman, ularning gunohlari oqibatidan farzandlari, nabiralari va chevaralari ham qochib qutulmaydi. 6 Lekin Meni sevib, amrlarimga rioya qiladiganlarning ming–ming avlodlariga* sodiq sevgimni ko‘rsataman.

7 Men, Egangiz Xudoning ismini suiiste’mol qilmang*. Kim Mening ismimni suiiste’mol qilsa, o‘shani jazosiz qoldirmayman.

8 Shabbat kunini muqaddas deb biling, bu kunga rioya qilib yuring. 9 Hamma ishlaringizni bajarishingiz uchun olti kun bor. 10 Yettinchi kun esa Men, Egangiz Xudoga atalgan Shabbat kunidir. O‘sha kuni hech qanday ish qilmanglar. O‘g‘illaringiz, qizlaringiz, qullaringiz, cho‘rilaringiz, hayvonlaringiz, shahringizdagi musofirlar ham hech qanday ish qilishmasin. 11 Men, Egangiz, olti kun davomida osmon bilan yerni, dengizni va ulardagi hamma mavjudotni yaratdim. Yettinchi kuni esa dam oldim. Shuning uchun Men, Egangiz, Shabbat kunini muborak qilib, muqaddas deb boshqa kunlardan ajratdim.

12 Ota–onangizni hurmat qiling. O‘shanda Men, Egangiz Xudo, sizlarga berayotgan yurtda umringiz uzoq bo‘ladi.

13 Qotillik qilmang.

14 Zino qilmang.

15 O‘g‘rilik qilmang.

16 Qo‘shningizga qarshi yolg‘on guvohlik bermang.

17 Qo‘shningizning uyiga ko‘z olaytirmang. Qo‘shningizning xotini, quli yoki cho‘risi, moli yoxud eshagi, unga qarashli biror narsasiga ko‘z olaytirmang.”

Isroil xalqi vahimaga tushadi

18 Butun xalq chaqmoqni va tog‘ning tutunini ko‘rdi, momaqaldiroq tovushini va

burg‘uning baland ovozini eshitdi. Xalq qo‘rqqanidan titrab, uzoqroqqa borib turdi.
19 Xalq Musoga aytdi:

— Bizga o‘zingiz gapiring, biz quloq solaylik. Xudo bizga gapirmasin, tag‘in o‘lib ketmaylik.

20 — Qo‘rqmanglar! — dedi Muso xalqqa. — Xudo faqat sizlarni sinash uchun, Undan qo‘rqib, gunoh qilmasligingiz uchun kelgan.

21 Ammo xalq uzoq masofada turaverdi. Muso Xudo turgan qalin bulutga yaqin bordi.

Qurbongohlar to‘g‘risida ko‘rsatmalar

22 So‘ngra Egamiz Musoga aytdi:

— Isroil xalqiga Mening shu gapimni yetkaz: “Men sizlarga samodan gapirganimga o‘zlaringiz guvoh bo‘ldingiz. 23 O‘zlaringiz uchun kumush yoki oltindan xudolar yasamanglar. Mendan boshqa hech bir xudoga sajda qilmanglar. 24 Men O‘zimni sizlarga qayerda zohir qilsam, o‘sha joyda Menga atab tuproqdan qurbongoh quringlar. Shunda Men kelib, sizlarga marhamat qilaman. O‘sha qurbongoh ustida qo‘ylaringizdan, echkilaringizdan, mollaringizdan Menga kuydiriladigan va tinchlik qurbonliklari keltiringlar. 25 Agarda Menga atab toshdan qurbongoh yasasangiz, uni yo‘nilgan toshdan qilmanglar. Toshga teshani tekkizganlaringizda, tosh harom bo‘ladi. 26 Menga atalgan qurbongohga zinapoya orqali chiqmanglar, aks holda, zinapoyadan chiqayotganingizda, ochiq joylaringiz ko‘rinib qoladi*.”

21–BOB

Qullar to‘g‘risida qonun–qoidalar

1 Egamiz yana Musoga aytdi: “Sen ularga yetkazadigan qonun–qoidalar quyidagicha:

2 Agar ibroniy erkak sizlarga qul bo‘lib sotilsa*, u sizlarga olti yil xizmat qilsin. Yettinchi yili esa u ozod bo‘lsin, qarzi yo‘q deb hisoblansin. 3 Uni sotib olganingizda, bo‘ydoq bo‘lsa, bo‘ydoqligicha chiqib ketsin. Agar u uylangan bo‘lsa, xotini ham u bilan birga ketsin. 4 Agar xo‘jayini o‘sha qulni uylantirib qo‘ygan va xotini farzand ko‘rgan bo‘lsa, xotini va bolalari xo‘jayinnikida qolib, bir o‘zi chiqib ketsin. 5 Lekin qul:

— Men xo‘jayinimni, xotinimni va bolalarimni yaxshi ko‘raman, ozod bo‘lib chiqib ketmayman, — deb aytsa, 6 xo‘jayini uni hakamlar huzuriga* olib kelsin. Xo‘jayin uning qulog‘ini eshikka yoki eshik kesakisiga* qo‘yib, bigiz bilan teshsin. O‘shanda bu odam umrining oxirigacha xo‘jayiniga qul bo‘lib qoladi.

7 Biror odam o‘z qizini cho‘rilikka sotsa, u qiz, erkaklar singari, olti yil tugamaguncha ozod bo‘lmaydi. 8 Agar qiz birortasiga sotilsa–yu, o‘sha odam unga uylanishni niyat qilgan bo‘lsa, ammo u qizni yoqtirmay qolsa, qiz otasiga qaytarib sotilsin. Xo‘jayin qizni begonalarga sotishi mumkin emas. Aks holda, kelishuvni bekor qilishga olib kelgan bo‘lardi. Xo‘jayin qizni sotib olganda, o‘rtada kelishuv bo‘lgan. 9 Bordi–yu, qizni o‘g‘liga cho‘ri qilib sotib olib bergan bo‘lsa, unga qiziday muomala qilsin. 10 Agar xo‘jayin cho‘riga uylanib, so‘ngra boshqa xotinga uylangan bo‘lsa, cho‘rini oziq–ovqat yoki kiyim–kechakdan, yo xotini sifatida u bilan yotishdan mahrum qilmasin. 11 Agar o‘sha odam ana shu uch yo‘lni cho‘riga qilmasa, cho‘ri qarz bo‘lmasdan, pul to‘lamay ketaversin.

Zo‘ravonlik to‘g‘risida qonun–qoidalar

12 Birortasi boshqasini urib o‘ldirib qo‘ysa, urgan odamning jazosi o‘limdir. 13 Lekin
birortasi qasddan qilmay, Men, Xudoyingiz, shunga yo‘l qo‘ygan bo‘lsam, u qochib
boradigan joyni Men tayinlayman. 14 Bordi–yu, birortasi boshqa bir odamni hiyla bilan
qasddan o‘ldirsa, jonini saqlash uchun Menga atalgan qurbongohga qochib borsa*, uni
qurbongohdan olib chiqib o‘limga hukm qilish lozim.
15 O‘z otasi yoki onasiga qo‘l ko‘targanning jazosi o‘limdir.
16 Kimki birortasini o‘g‘irlab, o‘g‘irlagan odamini sotib yuborsa yoki hali ham ushlab
turgan bo‘lsa, o‘shaning jazosi o‘limdir.
17 Kimki otasini yoki onasini xo‘rlasa, o‘sha odamning jazosi o‘limdir.
18 Ikki kishi janjallashib, biri ikkinchisini tosh yoki musht bilan ursa–yu, u o‘lmay,
to‘shakka yotib qolsa, 19 lekin o‘rnidan turib, tayoq bilan uydan chiqa olsa, urgan odam
javobgar bo‘lmasin. Faqat jarohatlangan odamga yo‘qotgan vaqti, davolanishi uchun pul
to‘lasin.
20 Birortasi o‘z qulini yoki cho‘risini tayoq bilan urib o‘ldirib qo‘ysa, kaltaklangan
odam uning qo‘lidan o‘lsa, urgan odam jazolanishi lozim. 21 Lekin xo‘jayin qul yoki
cho‘rini ursa–yu, u bir–ikki kundan keyin o‘lib qolsa, xo‘jayin jazolanmasin. O‘z
mulkidan ayrilgani unga yetarli jazodir.
22 Urishayotgan odamlar homilador ayolni turtib yuborsalar, ayol chala tug‘ib
qo‘ysa–yu*, unga boshqa ziyon yetmasa, ziyon yetkazgan odam o‘sha ayolning eri talab
qilgan va hakamlar belgilagan miqdordagi zararni to‘lashi lozim. 23 Agar boshqa zarar
yetgan bo‘lsa, jon evaziga jon, 24 ko‘z evaziga ko‘z, tish evaziga tish, qo‘l evaziga qo‘l,
oyoq evaziga oyoq, 25 kuyuk evaziga kuyuk, yara evaziga yara, lat yeyish evaziga lat
yetkazish bilan javob bersin*.
26 Kimki qul yoki cho‘risining ko‘ziga urib ko‘r qilib qo‘ysa, ko‘zi evaziga uni
ozodlikka chiqarsin. 27 Quli yoki cho‘risining tishini sindirsa ham, uni tishi evaziga
ozodlikka chiqarsin.

Egalarning mas’uliyati to‘g‘risida qonun–qoidalar

28 Agar erkak yoki ayolni buqa suzib o‘ldirsa, buqa toshbo‘ron qilib o‘ldirilsin. Go‘shti
esa tanovul qilinmasin. Lekin buqaning egasi aybdor hisoblanmasin. 29 Biroq buqa ilgari
ham suzong‘ich bo‘lsa–yu, egasi buni bila turib, buqasini nazorat qilmagan bo‘lsa, buqa
biror erkak yoki ayolni suzib o‘ldirsa, buqa toshbo‘ron qilib o‘ldirilsin. Buqaning egasiga
ham jazo o‘limdir. 30 Ammo buqa egasiga o‘z hayotini saqlab qolishi uchun pul to‘lagani
ijozat berilsa, u talab qilingan mablag‘ni to‘lashi lozim. 31 O‘g‘il bolani suzsa ham, qiz
bolani suzsa ham, shu qonun amal qilsin. 32 Agar buqa qul yoki cho‘rini suzsa, uning
xo‘jayiniga buqa egasi o‘ttiz bo‘lak kumush* to‘lasin. Buqa esa toshbo‘ron qilinsin.
33 Birortasi chuqur* kovlab, ustini yopib qo‘ymasa yoki yopiq chuqurning ustini
ochib qo‘ysa–yu, o‘sha chuqurga mol yoki eshak tushib ketsa, 34 chuqurning egasi o‘lgan
hayvonning egasiga tovon to‘lasin. Hayvonning jasadi esa chuqur egasiniki bo‘lsin.
35 Agar birortasining buqasi boshqasining buqasini suzib o‘ldirib qo‘ysa, tirik buqani
sotib, pulini teng bo‘lishsin. O‘lgan buqani ham teng bo‘lishsin. 36 Ammo buqa ilgari ham
suzong‘ich bo‘lsa–yu, egasi buni bila turib, buqasini nazorat qilmagan bo‘lsa, buqa
evaziga buqa bilan tovon to‘lashi kerak. O‘lgan buqani esa o‘ziga olsin.

22–BOB

Mulkni himoya qilish to‘g‘risida qonun–qoidalar

1 Birortasi mol yoki qo‘yni o‘g‘irlab, so‘ysa yoki sotsa, molning evaziga o‘g‘ri beshta
mol, qo‘yning evaziga to‘rtta qo‘y to‘lasin. 2-4 O‘g‘irlangan hayvonni o‘g‘ri qaytarishi
kerak bo‘lsa–yu, lekin tovon to‘lay olmasa, u o‘g‘irlagan hayvon evaziga qul qilib sotilsin.
O‘g‘irlangan hayvon tiriklayin o‘g‘rining qo‘lida topilsa, topilgan hayvon mol bo‘ladimi
yo eshak yoki qo‘y bo‘ladimi, ikki baravar qilib tovon to‘lasin.

Birortasi kechasi devor teshayotgan o‘g‘rini ko‘rib qolib, o‘g‘rini urib o‘ldirib qo‘ysa,
o‘g‘rini o‘ldirgan odam aybdor emas. Agar o‘g‘rilik kunduzi sodir bo‘lsa, qon to‘kkan
odam aybdor bo‘ladi.

5 Agar birortasi birovning dalasiga yoki uzumzoriga chorvasini o‘tlatgani qo‘yib
yuborsa, chorva ekinzorni yoki uzumzorni payhon qilsa, chorva egasi o‘zining dalasidan
yoki uzumzoridan yaxshi hosilini dalaning egasiga qaytarib berishi lozim.

6 Agar birortasi olov yoqsa, olov changalzor bo‘ylab birovning dalasiga o‘tib,
o‘sayotgan donni yoki o‘rib, bog‘lab qo‘yilgan g‘allani yondirib yuborsa, olov yoqqan
odam hamma zararni qoplashi lozim.

7 Birortasi pulini yoki buyumini qo‘shnisiga saqlash uchun bersa, ammo shular
qo‘shnisining uyidan o‘g‘irlanib, o‘g‘ri topilsa, o‘g‘ri ikki baravar qilib to‘lashi kerak.
8 O‘g‘ri topilmasa, uy egasi hakamlar huzuriga* kelib:

— Qo‘shnimning mulkiga qo‘limni tekkizmaganman, — deb qasam ichsin.

9 Kimdir yo‘qotib qo‘ygan biror buyumi, moli, eshagi, qo‘yi, kiyimi to‘g‘risida
qo‘shnisi bilan janjallashib qolsa, bu meniki, deb da’vo qilsa, ikkovi ham, ajrim qilamiz
deb, hakamlar huzuriga borsin. Hakamlar* aybdor deb topgan odam buyum egasiga ikki
baravar tovon to‘lashi kerak.

10 Birortasi qo‘shnisiga eshagini yo molini yoki qo‘yini yoxud boshqa hayvonini
qarab turgani bersa–yu, o‘sha hayvon o‘lib qolsa, yoki shikastlansa, yoki o‘g‘irlab olib
ketilgan bo‘lsa, lekin guvoh bo‘lmasa*, 11 olgan odam hayvon egasiga: «Xudo haqi, aybim
yo‘q», deb qasam ichsin. Hayvon egasi qasamga ishonsin, qo‘shnisi tovon to‘lamasin.
12 Bordi–yu, o‘sha hayvon qo‘shnisining aybi bilan o‘g‘irlangan bo‘lsa, qo‘shnisi hayvon
egasiga tovon to‘lasin. 13 Agarda hayvonni biror yirtqich tilka–pora qilgan bo‘lsa, dalil
qilib burdalarini ko‘rsatsin. Burdalangan bo‘laklari uchun u tovon to‘lamaydi.

14 Birortasi boshqasining hayvonini so‘rab olgan bo‘lsa–yu, hayvon shikastlansa yoki
o‘lsa, lekin o‘sha paytda egasi hayvonning oldida bo‘lmasa, so‘rab olgan odam hayvon
uchun tovon to‘lasin. 15 Agar o‘shanda egasi o‘z hayvoni yonida bo‘lsa, tovon to‘lamasin.
Agar hayvon yollab olingan bo‘lsa, yollangan bahosi to‘lansin.

Axloq va din to‘g‘risida qonun–qoidalar

16 Kimki voyaga yetgan va unashtirilmagan qizni zo‘rlab, u bilan yotsa, o‘sha odam u
qiz uchun qalin bersin, o‘sha qizga uylansin. 17 Agar otasi qizni o‘sha odamga berishga
rozi bo‘lmasa, o‘sha odam voyaga yetgan qizlarga beriladigan miqdordagi pulni qizning
oilasiga to‘lasin.

18 Jodugarlarni tirik qoldirmanglar.

19 Hayvon bilan jinsiy aloqa qilgan odamning jazosi o‘limdir.

20 Faqat Men, Egangizgagina qurbonlik keltiringlar. Mendan boshqa xudolarga

qurbonlik keltirgan odamni o‘limga hukm qilinglar.
21 Musofirni ezib, unga zulm o‘tkazmanglar. O‘zlaringiz ham Misrda musofir bo‘lgan
edingizlar.
22 Bevalarga va yetimlarga jabr qilmanglar. 23 Agar shunday qilsangiz, ular Menga
yolvoradilar. Men ularning nolalarini eshitaman. 24 Men qattiq g‘azablanib,
erkaklaringizga qirg‘in keltiraman. Oqibatda xotinlaringiz beva, bolalaringiz yetim bo‘lib
qoladi.
25 Mening xalqimdan birorta kambag‘alga qarz bersangiz, qarz beruvchi sifatida uni
siquvga olmanglar, undan foiz talab qilmanglar. 26 Agar qo‘shningizning to‘nini garovga
olgan bo‘lsangiz, kun botmasdan oldin to‘nini qaytarib bering. 27 O‘sha to‘n
qo‘shningizning bittayu bitta yopinchig‘idir. Bo‘lmasa, qo‘shningiz nimani yopinib
uxlaydi?! U Menga yolvorganda, eshitaman. Men rahmdilman.
28 Men, Xudoyingizni* xo‘rlamanglar, oqsoqollaringizdan birontasini ham
qarg‘amanglar.
29 Xirmoningizning hosilidan, zaytun moyi va sharobdan Menga nazr qilishni
kechiktirmanglar.
To‘ng‘ich o‘g‘illaringizni Menga bag‘ishlanglar*. 30 Mol va qo‘y–echkilaringizning
birinchi erkak bolasini ham Menga bag‘ishlanglar. Ular yetti kun onasi bilan bo‘lsin,
sakkizinchi kuni esa ularni Menga nazr qilinglar.
31 Sizlar Mening muqaddas xalqim bo‘linglar. Dalada yirtqich tilka–pora qilgan
hayvonning go‘shtini o‘zlaringiz yemanglar, itlarga beringlar.

23–BOB

Adolatli hukm to‘g‘risida qonun–qoidalar

1 Yolg‘on xabarlar tarqatmanglar. Yolg‘on guvohlik berish orqali fosiq odamlarga
qo‘shilmanglar. 2 Ko‘pchilik noto‘g‘ri ish qilganda yoki adolatdan chetga chiqib guvohlik
berganda, ularga ergashmanglar. 3 Kambag‘alni hukm qilayotganda ham, kambag‘al, deb
uning tarafini olmang.
4 Agar dushmaningizning yo‘qolib qolgan ho‘kizini yoki eshagini topib olsangiz,
egasiga olib borib bering. 5 Dushmaningizning eshagi yuk og‘irligidan yiqilib qolsa, siz
uni ko‘rgan bo‘lsangiz, dushmaningizni tashlab ketmang. Unga yordam bering.
6 Hukmda kambag‘alga qarshi adolatdan ko‘z yummang. 7 Tuhmatchilardan uzoq
turinglar, aybsiz, to‘g‘ri odamni o‘limga hukm qilmanglar. Men bunday ish qilgan
aybdorlarni hukmda oqlamayman. 8 Pora olmanglar. Pora tufayli ko‘zi ochiqlarning
ko‘zini yog‘ bosadi. Pora har doim to‘g‘ri odamlarning ishiga zarar yetkazadi.
9 Musofirga zulm qilmanglar. O‘zlaringiz Misrda musofir bo‘lgan edingizlar, shu bois
musofirning ahvolini bilasizlar.

Yettinchi yil va yettinchi kun to‘g‘risida qonun–qoidalar

10 Olti yil dalangizga urug‘ sepib, hosilini yig‘ishtirib oling. 11 Yettinchi yili* esa
yeringizni bo‘sh qoldiring, dam bering. Xalqingiz orasidagi kambag‘allar yeringizdan
o‘sib chiqadigan hosildan biron yegulik topib yesin. Ulardan qolganini esa dasht
hayvonlari yesin. Uzumzoringizni va zaytunzoringizni ham shunday qilinglar.
12 Olti kun ish qilinglar, yettinchi kuni esa ishlamanglar, toki ho‘kizlaringiz,
eshaklaringiz ham ishdan tinsin, qullaringiz, musofirlar ham orom olsin.

13 Men sizlarga bergan amrlarimga rioya qilinglar. Boshqa xudolarga iltijo
qilmanglar. Ularning nomlarini hatto tilga ham olmanglar.

Yilda qilinadigan bayramlar to‘g‘risida qonun–qoidalar

14 Menga atab yilda uch marta bayram qilinglar:

15 Abib oyining* belgilangan vaqtida xamirturushsiz non bayramini
nishonlanglar. Sizlar o‘sha oyda Misrdan chiqqansizlar. Men sizlarga amr
etganimday*, yetti kun xamirturushsiz non yenglar. Har kim Mening huzurimga
munosib nazrlar olib kelishi lozim.
16 Bug‘doy o‘rimini yig‘ishtirishni boshlaganingizda, dalangizga ekkan
urug‘ning ilk hosilidan nazr qilinglar. Shu orqali Hosil bayramini nishonlanglar.
Kuzda daladagi hamma hosilingizni yig‘ishtirib bo‘lganingizda, Chayla
bayramini* nishonlanglar.

17 Hamma erkaklar har yili shu uchala bayramda Men, Egangiz Rabbiyning huzuriga
kelib sajda qilsin.
18 Menga qilingan qurbonlikning qonini xamirturush qo‘shilgan non bilan birga nazr
qilmanglar. Qilingan qurbonlikning yog‘ini ertalabga qoldirmay kuydiringlar.
19 Yeringizdan olgan ilk hosilning eng yaxshisini Men, Egangiz Xudoning uyiga olib
kelinglar.
Uloqchani onasining sutida qaynatmanglar*.

Va’da va ogohlantirishlar

20 Sizlarni yo‘lda muhofaza etsin, sizlarni Men tayyorlagan yerga olib borsin deb,
oldingizda farishtani yuboryapman. 21 Mening nomimdan keladigan qudratu hokimiyat
unga berilgan. Shuning uchun unga o‘jarlik qilmanglar, aks holda, u o‘jarligingizni
kechirmaydi. 22 Agar farishtamning aytganlariga diqqat bilan quloq solsangiz, Mening
amrlarimga itoat etsangiz, dushmanlaringizga dushman, raqibingizga raqib bo‘laman.
23 Farishtam oldingizda borib, sizlarni Amor, Xet, Pariz, Kan’on, Xiv va Yobus
xalqlarining yerlariga boshlab boradi. Men o‘sha xalqlarni yo‘q qilaman. 24 Ularning
xudolariga sajda qilmanglar, xizmat qilmanglar. Bu xalqlarning odatlariga taqlid
qilmanglar. Ularning xudolarini yo‘q qilinglar, butsimon toshlarini sindirib tashlanglar.
25 Faqat Men, Egangiz Xudogagina xizmat qilinglar. Shunda Men osh–suvingizni barakali
qilaman, orangizdan xastaliklarni yo‘q qilaman. 26 Yurtingizda homilasi tushib qolgan
yoki befarzand ayol bo‘lmaydi. Men umringizni uzoq qilaman.
27 Sizlarga qarshi bo‘lgan xalqlarni Mendan qo‘rqadigan qilaman. Sizlarga qarshi jang
qiladigan xalqlarni sarosimaga solaman. Dushmanlaringizning hammasini oldingizdan
qochiraman. 28 Men Xiv, Kan’on va Xet xalqlarini vahimaga solaman–da, oldingizdan
quvib yuboraman*. 29 Lekin Men bir yil ichidayoq ularni oldingizdan haydab
yubormayman. Agar bir yilning ichida ularni haydasam, o‘sha yurt bo‘m–bo‘sh bo‘lib
qoladi, dasht hayvonlari ko‘payib, sizga xavf soladi. 30 Shuning uchun sizlar ko‘payib,
o‘sha yurtni butunlay egallab olmaguningizcha, u yerning xalqlarini oz–ozdan
oldingizdan haydayman. 31 Chegaralaringizni Qizil dengizdan* O‘rta yer dengizigacha*,
sahrodan Furot daryosigacha* kengaytiraman. Shu yurtning xalqlarini qo‘llaringizga
beraman. Sizlar ularni oldingizdan quvasizlar. 32 Ularning o‘zlari bilan ham, xudolari

bilan ham ahd qilmanglar. 33 U xalqlar sizning yurtingizda yashamasin. Bo‘lmasa ular
sizni o‘zlarining xudolariga sajda qildirib, Menga qarshi gunohga boshlaydi. Bu yo‘l bilan
sizlarni tuzog‘iga ilintirib oladi.”

24–BOB

Xalq Xudoga itoat etishga rozi

1 Shundan keyin Egamiz Musoga dedi:
— Sen Horunni va uning ikki o‘g‘li Nadov bilan Abihuni, Isroilning yetmishta
oqsoqolini Mening huzurimga olib kel*. Keyin uzoqdan sajda qilinglar. 2 Menga faqat sen
yaqin kelgin, boshqa hech kim yaqin kelmasin. Xalq esa sizlar bilan birga chiqmasin.
3 Muso kelib, Egamizning hamma amrlarini, hamma qonun–qoidalarini xalqqa aytib
berdi. Xalq bir ovozdan: “Egamizning hamma aytganlarini bajaramiz”, deya javob berdi.
4 Muso Egamizning hamma amrlarini va qonun–qoidalarini yozdi. So‘ng ertasi kuni
tongda turib, tog‘ etagiga qurbongoh qurdi. O‘n ikki Isroil qabilasining miqdoriga ko‘ra,
o‘n ikkita tosh o‘rnatdi. 5 Muso Isroil xalqi orasidan yosh yigitlarni qurbonliklar
keltirgani yubordi. Ular Egamizga kuydiriladigan qurbonliklar qilishdi. Buqalarni
tinchlik qurbonliklari qilishdi. 6 Muso qonning yarmini tog‘oraga quydi, qolgan yarmini
esa qurbongohga sepdi. 7 So‘ngra u Ahd kitobini* olib, xalqqa ovoz chiqarib o‘qib berdi.
Shunda xalq: “Egamizning hamma aytganlarini bajaramiz, Unga itoat qilamiz”, dedi.
8 Muso tog‘oradagi qonni oldi–da, xalqqa sepib: “Ana shu so‘zlarga muvofiq, shu qon
Egamizning sizlar bilan qilgan ahdini tasdiqlaydi”, — dedi.
9 Shundan keyin Muso, Horun, Nadov, Abihu va Isroilning yetmishta oqsoqoli toqqa
chiqishib, 10 u yerda Isroil xalqining Xudosini ko‘rdilar: Uning oyoqlari ostida zangori
yoqutdan qilingan polga o‘xshash bir narsa bor edi. U moviy osmon kabi musaffo edi.
11 Isroil xalqining bu yo‘lboshchilari Xudoni ko‘rgan bo‘lsalar–da, Xudo ularni o‘ldirmadi.
Ular o‘sha yerda qurbonlik go‘shtini tanovul qildilar.

Muso Sinay tog‘ida

12 Keyin Egamiz Musoga aytdi:
— Toqqa, Mening oldimga chiqib, shu yerda tur*. Men senga amr va qonunlar
yozilgan ikkita tosh lavhani beraman. Bu amr va qonunlarni xalq o‘rgansin deb yozdim.
13 Muso bilan uning shogirdi Yoshua otlanishdi. Muso Xudoning muqaddas tog‘iga
ketayotib, 14 oqsoqollarga aytdi:
— Yonlaringizga qaytib kelgunimizcha shu yerda — qarorgohda kutib turinglar.
Horun bilan Xur sizlarning yoningizda qoladi. Kimning ishi bo‘lsa, ularga murojaat etsin.
15 Muso toqqa chiqqanda, tog‘ni bulut qopladi. 16 Egamiz ulug‘vorligini zohir qilib,
Sinay tog‘iga tushdi. Olti kun davomida bulut tog‘ni qoplab turdi. Yettinchi kuni Egamiz
bulut orasidan Musoni chaqirdi. 17 Egamizning ulug‘vorligi tog‘ cho‘qqisida
lovullayotgan alanga kabi, Isroil xalqi ko‘zi o‘ngida zohir bo‘lib turardi. 18 Muso bulut
orasida yurib, tog‘ cho‘qqisiga chiqdi. Muso tog‘da qirq kechayu qirq kunduz qoldi.

25–BOB

Muqaddas chodir uchun nazrlar

1 Egamiz Sinay tog‘ida Musoga dedi: 2 “Isroil xalqiga, Egamizga nazr keltiringlar, deb

ayt. Menga chin ko‘ngildan nazr qilmoqchi bo‘lgan odamning nazrini qabul qil. 3 Sen
ulardan qabul qilib oladigan nazrlar quyidagilardir: oltin, kumush, bronza, 4 shuningdek,
ko‘k, safsar va qirmizi rangli iplar, mayin zig‘ir matosi, echki juni, 5 qizilga bo‘yalgan
qo‘chqor terisi, yumshoq teri*, akas yog‘ochi*, 6 moychiroqlar uchun zaytun moyi,
muqaddas qiladigan moy* uchun ziravorlar, xushbo‘y tutatqi uchun ziravorlar, 7 efod va
ko‘krakpechga taqiladigan aqiq hamda boshqa qimmatbaho toshlar. 8 Isroil xalqi Men
uchun muqaddas maskan barpo qilishsin, toki Men Isroil xalqi orasida istiqomat qilayin.
9 Bu Muqaddas chodirni va uning hamma jihozlarini Men senga ko‘rsatadigan namunaga
muvofiq yasat.

Ahd sandig‘i va uning qopqog‘iga oid ko‘rsatmalar

10 Akas yog‘ochidan Sandiq* yasat. Sandiqning uzunligi ikki yarim tirsak, eni bir
yarim tirsak, bo‘yi bir yarim tirsak* bo‘lsin. 11 Sandiqning ichkariyu tashqarisini toza
oltin bilan qoplat. Aylanasiga oltin gulchambar qildir. 12 Sandiq uchun eritilgan oltindan
to‘rtta halqa yasatib, to‘rtala oyog‘iga mahkamlat: ikkita halqa bir tomonida, ikkita halqa
ikkinchi tomonida bo‘lsin. 13 Keyin akas yog‘ochidan xodalar yasatib, xodalarni oltin
bilan qoplat. 14 Xodalarni Sandiqning ikkala tomonidagi halqadan o‘tkaz, toki xodalar
yordamida Sandiqni ko‘tarib yurishsin. 15 Xodalar Sandiqning halqalaridan ayirib
olinmasin, doimo tursin. 16 Men senga beradigan ahdning amr va qonunlari yozilgan
ikkita tosh lavhani* Sandiqqa solib qo‘y.

17 Toza oltindan Sandiqning qopqog‘ini yasat. Qopqoqning uzunligi ikki yarim tirsak,
eni bir yarim tirsak* bo‘lsin. 18-19 Shu bilan birga, oltindan zarb urib ikkita karub* yasat*.
Bitta karub qopqoqning bir chetida, ikkinchi karub ikkinchi chetida bo‘lib, har ikkalasi
qopqoq bilan bir butunni tashkil qilsin. 20 Karublarning tepaga ko‘tarilgan qanotlari
qopqoqni berkitib tursin. Ular yuzma–yuz turib, qopqoqqa qaragan bo‘lsin. 21 Qopqoqni
Sandiqning ustiga qo‘y. Men senga beradigan ikkita tosh lavhani* Sandiqqa sol. 22 Men
sen bilan Ahd sandig‘i* oldida uchrashaman. Karublar o‘rtasidagi gunohdan poklash joyi
tepasidan Men senga gapirib, Isroil xalqi uchun hamma amrlarimni senga beraman.

Muqaddas nonlar qo‘yiladigan xontaxtaga oid ko‘rsatmalar

23-24 Akas yog‘ochidan xontaxta* yasat. Uni toza oltin bilan qoplat. Xontaxtaning
uzunligi ikki tirsak, eni bir tirsak, bo‘yi bir yarim tirsak* bo‘lsin. Xontaxtaning chetlariga
aylantirib oltin gulchambar qildir. 25 Yana xontaxtaning aylanasi bo‘ylab to‘rt enli rom
o‘rnat. Bu romni naqshli hoshiya qilib bezat. Uni xontaxtaning oyoqlariga mahkamlat. 26-
28 Yana to‘rtta oltin halqa yasatib, har birini taxta mahkamlangan joyning yoniga —
to‘rtala burchagidagi to‘rtala oyog‘iga o‘rnashtir. Akas yog‘ochidan ikkita xoda yasatib,
ularni oltin bilan qoplat. Bu yog‘ochlarni halqalardan o‘tkazib, xontaxtani ko‘tarib yurish
uchun foydalan. 29 Xontaxtaga qo‘yiladigan lagan, piyolalar, sharob nazr qilish uchun
ko‘za va kosalar yasat. Bu buyumlarni toza oltindan yasat. 30 Mening huzurimdagi
xontaxtada doim muqaddas nonlar* tursin.

Chiroqpoyaga oid ko‘rsatmalar

31 Sof oltindan zarb urib chiroqpoya* yasat. Butun chiroqpoya va uning bezaklari bir
butun qilib yasalsin. Chiroqpoyaning tagligi, poyasi va kurtakli gulga o‘xshash shakldagi
piyolalari bo‘lsin. 32 Yana chiroqpoyaning poyasidan oltita shoxcha chiqarilsin: uchta
shoxchasi bir yonidan, uchta shoxchasi ikkinchi yonidan chiqarilsin. 33 Chiroqpoyaning
poyasidan chiqadigan shoxchalarning har birida kurtakli bodom guliga o‘xshash

shakldagi uchta piyola bo‘lsin. 34 Chiroqpoyaning poyasida kurtakli bodom guliga
o‘xshash shakldagi to‘rtta piyola bo‘lsin. 35 Chiroqpoyaning poyasidan chiqadigan
shoxchalarning har juftida bu kurtaklardan uchtasi birin–ketin tizilib tursin.
36 Chiroqpoya, shoxchalari va kurtaklari bilan bitta qilib, toza oltinning yaxlit bo‘lagidan
zarb urib yasalishi lozim. 37 Chiroqpoya uchun yettita moychiroq yasat. Moychiroqlarni
chiroqpoyaga shunday o‘rnashtirginki, chiroqpoyaning old tomonini yoritadigan bo‘lsin.
38 Moychiroqlarga qarab turish uchun toza oltindan qisqichlar va patnislar yasat.
39 Chiroqpoyani va bu buyumlarni ikki pud* toza oltindan yasashsin. 40 Ehtiyot bo‘l,
o‘sha hamma buyumlarni Men senga shu yerda — tog‘da ko‘rsatgan namunaga muvofiq
yasat.

26–BOB

Muqaddas chodirga oid ko‘rsatmalar

Chodirning ichki qavati

1 Endi Muqaddas chodirning* o‘ziga kelsak, uning ichki qavatini qildir. U mayin zig‘ir
matosidan tikilgan o‘nta choyshabdan iborat bo‘lsin. Mohir ustalar bu choyshablarni
bezatib, ularga ko‘k, safsar va qirmizi iplar bilan karublar tasvirini solishsin. 2 Har bir
choyshabning bo‘yi yigirma sakkiz tirsak, eni to‘rt tirsak* bo‘lsin. Hamma
choyshablarning o‘lchovi bir xil bo‘lsin. 3 Choyshablardan beshtasining bo‘yini bir–biri
bilan birlashtirib tiktir, qolgan beshtasini ham shunday qildir. 4-5 Hosil bo‘lgan ikki uzun
bo‘lak choyshabning bo‘yiga ko‘k matodan elliktadan halqa tiktir. Har ikki tomonga
tikilgan halqalar bir–biriga ro‘parama–ro‘para bo‘lsin. 6 Keyin oltindan ellikta ilgak
yasattir, ikkala choyshabning halqalarini ilgaklar bilan bir–biriga ulat. Shunda
Chodirning ichki qavati bir butun bo‘ladi*.

Chodirning tashqi qoplamalari

7 Muqaddas chodirning qoplamasi uchun echki juni matosidan o‘n bitta choyshab
tiktir. 8 Har bir choyshabning bo‘yi o‘ttiz tirsak, eni to‘rt tirsak* bo‘lsin. O‘n bitta
choyshabning hammasi bir o‘lchovda bo‘lsin. 9-11 Choyshablardan beshtasining bo‘yini
bir–biri bilan birlashtirib tiktir, qolgan oltitasini ham shunday qildir. Ulangan ikki bo‘lak
choyshabning bo‘yiga elliktadan halqa tiktir. Keyin bronzadan ellikta ilgak yasat, ikkala
choyshabning halqalarini ilgaklar bilan bir–biriga ulat. Shunda Chodirning qoplamasi
bir butun bo‘ladi*. Chodir ustiga qoplamani tashlaganlaringizda, Chodirga
kiraverishning yuqorisida oltinchisini uzunasi bo‘ylab ikki bukla. 12 Qoplamaning
bo‘yidan qolgan ikki tirsagi* Chodirning orqasida yerga yoyilib turadi*. 13 Qoplamaning
eni oxiridagi qo‘shimcha bir tirsak Chodirning ikki yonboshida yerga osilib turadi va
Chodirni butunlay qoplaydi*. 14 Bu qoplama ustiga qo‘yish uchun qizilga bo‘yalgan
qo‘chqor terisidan qoplama, so‘ng yumshoq teridan* tashqi qoplama qildir.

Chodirni tutib turadigan rom

15 Akas yog‘ochidan* Muqaddas chodirni tutib turadigan romlar* yasat. 16 Har bir
romning bo‘yi o‘n tirsak, eni bir yarim tirsak* bo‘lsin. 17 Har bir romning ostida bir–
biriga parallel bo‘lgan ikkita tirgak yasat. 18 Chodirning janub tomonidagi devor uchun
yigirmata rom yasat. 19 Bu romlar ostiga qo‘yish uchun kumushdan qirqta taglik — har
bir rom uchun ikkitadan taglik qildir, toki har bir tirgak ostida bitta taglik bo‘lsin.

20 Chodirning shimol tomonidagi devori uchun yigirmata rom yasat. 21 Har bir rom
ostiga qo‘yish uchun ikkitadan, jami qirqta kumush taglik yasat. 22 Chodirning orqadagi
— g‘arb tomonidagi devor uchun oltita rom, 23 Chodirning orqasida burchaklar hosil
qilish uchun har ikki tomoniga yana bittadan rom yasat. 24 Bu ikkala romni pastdan va
yuqoridan tutashgan devordagi oxirgi romga birlashtir. Bitta burchak hosil qilish uchun
bitta halqa bilan yaxlit qilib birlashtir. Bu har ikkala burchak shu yo‘l bilan hosil qilinadi.
25 Shunday qilib, har bir rom ostiga qo‘yish uchun ikkitadan — o‘n oltita kumush
taglikka tayangan sakkizta romdan orqadagi devor yasaladi.
26 Muqaddas chodirning janub tomonidagi romlarni ushlab turish uchun akas
yog‘ochidan beshta tamba, 27 shimol tomonidagi romlarni ushlab turish uchun ham
beshta tamba, orqa tomoni — g‘arb tomonidagi romlarni ushlab turish uchun ham
beshta tamba yasat. 28 Romlarning yarmigacha o‘rnashtirilgan o‘rtadagi tambalar
Chodirning boshidan oxirigacha cho‘ziladi. 29 Romlarni oltin bilan qoplat, tambalarni
ushlab turadigan oltin halqalarni romlarga birlashtir*, tambalarni ham oltin bilan
qoplat.
30 Chodirni Men senga shu yerda — tog‘da ko‘rsatgan namuna bo‘yicha o‘rnashtir.

Chodirning ichki pardasi

31 Mayin zig‘ir matosidan ichki pardani tiktir. Mohir ustalar bu pardani bezatib, unga
ko‘k, safsar va qirmizi iplar bilan karublar tasvirini solishsin. 32 Akas yog‘ochidan to‘rtta
ustun yasat. Ustunlarga oltin qoplatib, ularga oltin ilgaklarni mahkamlat. Kumush
taglikka ustunlarni bittadan o‘rnashtir va ichki pardani ustundagi ilgaklarga osdir.
33 Ichki parda Chodir shipidagi ilgaklar* ostida osilib tursin. Ahd sandig‘i* ichki
pardaning orqasiga olib kirilsin. Ichki parda Muqaddas xonani Eng muqaddas xonadan
ajratib turadi. 34 Sandiqning qopqog‘i Eng muqaddas xonaga olib kirilsin, uni Ahd
sandig‘i ustiga qo‘ydir. 35 Xontaxtani Chodirning shimol tomoniga — ichki pardaning
tashqarisiga qo‘ydir. Chiroqpoyani esa Chodirning janub tomoniga — ichki pardaning
tashqarisidagi xontaxtaning ro‘parasiga o‘rnat.

Chodirning kirishidagi parda

36 Chodirga kirish joyi uchun mayin zig‘ir matosidan pardani tiktir. Parda ustiga ko‘k,
safsar va qirmizi iplardan nafis naqsh soldir. 37 Akas yog‘ochidan beshta ustun yasat,
toki pardani ushlab tursin. Ustunlarga oltin qoplatib, ularga oltin ilgaklarni mahkamlat.
Eritilgan bronzadan ustunlar ostiga qo‘yish uchun beshta taglik yasat.

27–BOB

Qurbonlik kuydiriladigan qurbongohga oid ko‘rsatmalar

1 Akas yog‘ochidan* to‘rtburchak qilib qurbongoh* yasat. Qurbongohning uzunligi
besh tirsak, eni ham besh tirsak, bo‘yi uch tirsak* bo‘lsin. 2 Qurbongohning to‘rtala
burchagiga o‘zidan yo‘nib chiqarilgan bittadan shox yasat. Qurbongoh va uning
shoxlarini bronza bilan qoplat. 3 Qurbongohdagi kulni to‘kkani qozonlar, kuraklar,
tog‘orachalar, sanchqilar, olovkuraklar yasat. Hamma buyumlarni bronzadan qildir.
4 Qurbongohga bronzadan panjara yasat. Panjaraning to‘rtala burchagiga to‘rtta bronza
halqa yasat. 5 Panjarani qurbongohning ichiga — to‘rt tomoniga o‘rnatilgan tokchaning
ostida o‘rnat, yarmigacha yetib borsin. 6 Yana qurbongoh uchun akas yog‘ochidan

xodalar yasatib, xodalarni bronza bilan qoplat. 7 Qurbongohni ko‘tarib yurish uchun
qurbongohning ikkala yonidagi halqalardan xodalarni o‘tkaz. 8 Qurbongohning
chetlariga taxta qoqtirib, ichini bo‘sh qoldir. Qurbongohni Men senga shu yerda —
tog‘da ko‘rsatganimday qilib yasattir.

Muqaddas chodir hovlisi atrofidagi to‘siqqa oid ko‘rsatmalar

9 So‘ngra Muqaddas chodirning hovlisini o‘rab tursin deb, pardadan to‘siq qildir:
to‘sib turadigan pardalarni mayin zig‘ir matosidan tiktir. Hovlining janub tomonidagi
pardadan qilingan to‘siqning uzunligi yuz tirsak* bo‘lsin. 10 O‘sha to‘siqda bronzadan
qilingan yigirmata taglikka o‘rnatilgan yigirmata ustun bo‘lsin. Shu yerdagi pardalarni
osish uchun ustunlarga kumushdan qilingan ilgaklar va halqalarni mahkamlat.
11 Hovlining shimol tomonidagi pardadan qilingan to‘siqning uzunligi ham yuz tirsakni
tashkil qilsin, uning yigirmata ustuni va bronzadan qilingan tagliklari ham bo‘lsin.
Pardalarini osish uchun ustunlariga kumushdan qilingan ilgaklar va halqalarni
mahkamlat. 12 Hovlining g‘arb tomonidagi pardadan qilingan to‘siqning uzunligi ellik
tirsak*, uning o‘nta ustuni va tagligi bo‘lsin. 13 Hovlining sharq tomoni ellik tirsak
kenglikda bo‘lsin. 14-15 Hovliga kirish joyi shu yer bo‘ladi. Kirishning o‘ng va chap
tomonidagi pardadan qilingan to‘siqlarning uzunligi o‘n besh tirsakdan* bo‘lsin, har ikki
tomonga uchtadan ustun va tagliklar o‘rnatilsin. 16 Hovliga kirish joyiga uzunligi yigirma
tirsak* bo‘lgan parda qildir. Uni mayin zig‘ir matosidan tiktir, ustiga ko‘k, safsar va
qirmizi iplardan nafis naqsh soldir. Bu pardani to‘rtta taglikka o‘rnatilgan to‘rtta ustun
ushlab turadi. 17 Hovlining atrofidagi hamma ustunlarning kumushdan qilingan ilgaklari
va halqalari, bronzadan qilingan tagliklari bo‘lsin. 18 Hovlining uzunligi yuz tirsak, eni
ellik tirsak* bo‘lsin. To‘sib turadigan pardalar mayin zig‘ir matosidan tiktirilib, bo‘yi
besh tirsak* bo‘lsin. Tagliklar bronzadan bo‘lsin. 19 Muqaddas chodirning boshqa barcha
zarur ashyolari ham, Chodirni va pardadan qilingan to‘siqni ushlab turadigan qoziqlar
ham bronzadan yasalsin.

Moychiroqlar uchun zaytun moyiga oid ko‘rsatmalar

20 Sen Isroil xalqiga buyruq ber: chiroqpoyadagi moychiroqlar uchun toza zaytun
moyini ular senga olib kelib turishsin, toki moychiroqlar har doim tun bo‘yi yonib
tursin. 21 Chiroqpoya Uchrashuv chodiriga, Ahd sandig‘ini* to‘sib turgan ichki parda
oldiga o‘rnatilgan bo‘lsin. Horun va uning o‘g‘illari, har kuni oqshomdan ertalabgacha
Egamizning huzurida moychiroqlar yonib tursin deb, moychiroqlardan xabar olib
turishsin. Bu qonun–qoidaga Isroil xalqi avlodlar osha doimo amal qilsin.

28–BOB

Ruhoniylik liboslariga oid ko‘rsatmalar

1 Isroil xalqi orasidan akang Horunni va u bilan birga uning o‘g‘illarini yoningga
chaqir. Horun ham, uning o‘g‘illari Nadov, Abihu, Elazar, Itamar ham ruhoniy bo‘lib
Menga xizmat qilishsin. 2 Akang Horunni salobatli va ko‘rkam qilish uchun unga
muqaddas ruhoniylik liboslarini* tiktir. 3-4 Men qobiliyat ato qilgan hamma mohir
ustalarga ayt. Ular Horunga quyidagi ruhoniylik liboslarini tikishsin: ko‘krakpech, efod,
rido, naqshli ko‘ylak, salla va belbog‘. Horun Menga xizmat qilganda, bu liboslar uni
muqaddas qilib boshqalardan ajratib turadi. Horun o‘g‘illari kiyishlari uchun ularga

muqaddas liboslar tiktir, toki ular ruhoniy bo‘lib Menga xizmat qilganlarida, bu liboslarni kiyishsin. 5 Ular bu liboslarni mayin zig‘ir matosidan tikib, ko‘k, safsar, qirmizi va zar iplar bilan bezatishsin.

Oliy ruhoniy uchun efod

6 Efodni* mayin zig‘ir matosidan yasatib, ustiga ko‘k, safsar, qirmizi va zar iplardan nafis naqsh soldir. 7 U bir–biriga ikkita yelka bog‘ichi bilan bog‘langan old va orqa qismlardan iborat bo‘lsin. 8 Kamar yasatib, uni efodga bog‘lat. Kamarni ham mayin zig‘ir matosidan qildir. Unga ko‘k, safsar, qirmizi va zar iplardan nafis naqsh soldir. 9-11 Keyin ikkita aqiq tosh olib, usta qimmatbaho toshga muhr o‘yadiganday, bu toshlarga Isroil o‘g‘illarining ismini o‘yib yozdir. Bitta toshga Isroil o‘g‘illaridan oltitasining ismini, ikkinchi toshga qolgan oltitasining ismini yoshi bo‘yicha yozdir. Yozilgan toshlarni oltindan qilingan naqshli uyalar ichiga qo‘ydirib, 12 efodning yelka bog‘ichlariga o‘rnashtir. Horun Men, Egangizning huzuriga kirganda, Isroilning o‘n ikki qabilasini eslatib turish uchun ikkala yelkasida bu toshlarni olib yuradi. 13 Yana ikkita naqshli, oltin uya va 14 toza oltindan ipga o‘xshatib eshilgan ikkita zanjir yasat. Bu ikkala zanjirning bir uchi uyaga mahkamlanadi*.

Oliy ruhoniy uchun ko‘krakpech

15 Oliy ruhoniy uchun ko‘krakpech* yasat. U hukm qilayotganda, Xudoning xohishini bilish uchun mana shu ko‘krakpechdan foydalanadi*. Ko‘krakpechni, efod singari, mayin zig‘ir matosidan yasatib, ustiga ko‘k, safsar, qirmizi va zar iplardan nafis naqsh soldir. 16 Ko‘krakpechni to‘rtburchak xalta shaklida, ikki buklangan, bo‘yi bir qarich, eniga ham bir qarich qilib yasat. 17 Ko‘krakpechga to‘rt qator toshni* to‘g‘ri qilib terdir: qizil yoqut, xrizolit va zumrad toshlarni birinchi qatorga terdir. 18 Ikkinchi qatorga firuza, zangori yoqut va olmosni terdir. 19 Uchinchi qatorga lojuvard, agat va ametist toshlarni terdir. 20 To‘rtinchi qatorga topaz, aqiq va yashma toshlarni terdir. Hamma toshlar oltindan qilingan naqshli uyalarga o‘rnashtirilsin. 21 Bu o‘n ikki tosh Isroilning o‘n ikki qabilasini eslatib turadi. Muhr o‘yganday qilib, Isroilning o‘n ikki o‘g‘lidan har birining ismini bu toshlarning har biriga o‘yib yozdir.

22-23 Ikkita oltin halqa yasatib, ko‘krakpechning ikkala ustki burchaklariga mahkamlat. Toza oltindan ipga o‘xshatib eshilgan ikkita zanjirni ol*. 24 Ikkala zanjirning bir uchini ko‘krakpechdagi halqalarga bog‘lat, 25 ikkinchi uchini naqshli oltin uyalarga mahkamlat*. Uyalarni efodning old tomonidagi yelka bog‘ichlariga o‘rnashtir. 26-27 Yana oltindan to‘rtta halqa yasat. Ikkitasini ko‘krakpechning ostki burchaklariga — efodga yaqin bo‘lgan ichki qirg‘og‘iga mahkamlat. Ikkitasini efodning old tomoniga, ikkala yelka bog‘ichining pastiga — naqshli kamar ustidagi joyga mahkamlat. 28 Ko‘krakpech efodning naqshli kamari ustida bo‘lsin, efoddan osilib turmasligi uchun ko‘krakpech halqalari yordamida efodning halqalariga ko‘k bog‘ich bilan mahkamlanadi.

29 Horun har safar Muqaddas xonaga kirganda ko‘krakpechdagi* o‘n ikki Isroil qabilasining ismi uning yuragi tepasida bo‘ladi. Shunday qilib, Horun Men, Egangizning huzurida bo‘lganda, ko‘krakpech doimo Menga Isroil qabilalarini eslatib turadi. 30 Urim va Tummimni ko‘krakpech xaltasining ichiga sol, toki Horun Mening huzurimga kirganda, xalqim uchun Mening xohishimni bilgani foydalaniladigan o‘sha narsalarni doimo yuragi tepasida ko‘tarib yursin.

Boshqa ruhoniylik liboslari

31 Efodning ridosini* ko‘k ipdan to‘qilgan matodan tiktir. 32 Ridoning o‘rtasidan bosh
sig‘adigan teshik qildir. Rido yirtilib ketmasligi uchun teshikning chetini to‘qit. 33-34 Rido
etagining uchiga aylanasi bo‘ylab anor* shaklini va qo‘ng‘iroqchalarni birin–ketin qilib
bittama–bitta ostirib chiq. Anor shaklini ko‘k, safsar va qirmizi iplardan qildir. Oltin
qo‘ng‘iroqchalarni anor shakli oralariga ostir. 35 Men, Egangizning huzurida Horun oliy
ruhoniy bo‘lib xizmat qilganda, shu ridoni kiyishi kerak. U Muqaddas xonaga kirganda
va u yerda bo‘lganda, ridoning qo‘ng‘iroqchalari chalinadi, shunda Horun xavf–xatardan
yiroq bo‘lib, o‘lmaydi.

36 Keyin toza oltindan lavha yasat. Lavhaning yuzasiga muhr o‘yganday qilib,
«Egamizga bag‘ishlangan», deb o‘yib yozdir. 37 Lavhani ko‘k bog‘ich bilan sallaning old
tomoniga mahkamlat. 38 Isroil xalqining ehsonlari Menga qabul bo‘lishi uchun Horun
doimo o‘z ruhoniylik vazifasini bajarganda, lavhani peshanasida olib yursin. Isroil xalqi
nazr qilganda, Horunning nazrlarga oid gunohni yuvish vazifasining ramzi shu lavha
bo‘ladi.

39 Horunning ko‘ylagini va sallasini mayin zig‘ir matosidan qildir, ko‘ylagiga naqsh
soldir. Yana belbog‘ini qildir, uni ham naqsh bilan bezat. 40 Horunning o‘g‘illarini
salobatli va ko‘rkam qilish uchun ularga ko‘ylaklar, belbog‘lar, peshanabog‘lar tiktir.
41 Akang Horun va uning o‘g‘illari ruhoniy bo‘lib Menga xizmat qilishlari uchun ularni
bag‘ishla: bu liboslarni ularga kiygizib, moy surt, ularni ruhoniy qilib tayinla.

42 Tananing ochiq joylari ko‘rinib qolmasin* deb, yana ularga zig‘ir matosidan
ishtonlar tiktir. Kiyimlar ularning belidan sonigacha yopib tursin. 43 Horun va uning
o‘g‘illari Uchrashuv chodiriga kirganlarida yoki Muqaddas xonada xizmat qilish uchun
qurbongohga yaqinlashganlarida, shu ichki kiyimlarni kiyib olsin. Shunda Horun va
uning o‘g‘illari ochiq joylarini berkitmagani uchun aybdor bo‘lib o‘ldirilmaydi. Horun va
uning nasliga doimiy qonun–qoida ana shudir.

29–BOB

Horun va uning o‘g‘illarini ruhoniy qilib bag‘ishlash to‘g‘risida ko‘rsatmalar

1 Horun bilan uning o‘g‘illari ruhoniy bo‘lib Menga xizmat qiladilar. Shuning uchun
ularni Menga bag‘ishlab, quyidagicha marosim o‘tkaz. Nuqsonsiz bitta buqani va ikkita
qo‘chqorni ol. 2 Sifatli bug‘doy unidan qilingan xamirturushsiz nonlarni, zaytun moyi
qo‘shilgan xamirturushsiz nonlarni va zaytun moyi surtilgan xamirturushsiz
chalpaklarni ham pishirtir. 3 Shundan keyin nonlarni savatga solib, buqa va ikkala
qo‘chqor bilan birga Menga nazr qilib olib kel. 4 Horun bilan o‘g‘illarini Uchrashuv
chodiri kiraverishiga olib kel. Hammalarini yuvintir. 5 So‘ngra ruhoniylik liboslarini ol.
Horunga ko‘ylakni va ridoni, efodni, ko‘krakpechni kiygiz*. Beliga efodning nafis
naqshinkor kamarini bog‘la. 6 Keyin Horunning boshiga sallani kiygizib, sallaning ustiga
oltin lavhani — uni boshqalardan ajratib turadigan muqaddaslik ramzini o‘rnashtir.
7 So‘ngra muqaddas qiladigan moyni* olib, uning boshiga surt va uni Mening xizmatimga
bag‘ishla. 8 Horunning o‘g‘illarini olib kelib, ularga ko‘ylakni kiygizib, 9 boshlariga
peshanabog‘ bog‘la. Horun bilan o‘g‘illariga yana belbog‘ bog‘la. Doimiy qonun–qoida
bo‘yicha ruhoniylik ularniki bo‘ladi.

So‘ng Horun va uning o‘g‘illarini ruhoniylik xizmatiga tayinla. 10 Buqani Uchrashuv

chodiri oldiga olib kel. Horun bilan o‘g‘illari esa buqaning boshiga qo‘llarini qo‘yishgach,
11 Uchrashuv chodiriga kiraverishda Men, Egangizning huzurida buqani so‘y.
12 Buqaning qonidan olib, barmog‘ing bilan qurbongohning shoxlariga* qonni surt.
Ortgan qonning hammasini esa qurbongohning yoniga to‘k. 13 Ichak–chovoqlarini
qoplab turgan hamma yog‘larini, jigarning a’lo qismini*, ikkala buyragini va buyrak
atrofidagi yog‘larini olib, qurbongohda kuydir. 14 Buqaning go‘shtini, terisini,
chiqindilarini qarorgohdan tashqariga olib chiqib kuydir. Bu gunoh qurbonligidir*.

15 So‘ngra qo‘chqorning bittasini olib kel. Horun bilan o‘g‘illari qo‘chqorning boshiga
qo‘llarini qo‘yishgach, 16 qo‘chqorni so‘yib, qonidan olgin–da, qurbongohning to‘rtala
yon tomoniga sep. 17 Qo‘chqorning tanasini bo‘laklab, ichak–chovoqlarini, oyoqlarini
yuv. Qo‘chqorning bu a’zolarini bo‘laklangan tanasi va kallasi ustiga qo‘yib, 18 qo‘chqorni
qurbongohda kuydir. Olovda kuydirilgan bu qurbonlikdan Men, Egangizga yoqimli hid
keladi.

19 Keyin ikkinchi qo‘chqorni olib kel. Horun bilan o‘g‘illari qo‘llarini qo‘chqorning
boshiga qo‘ygach, 20 qo‘chqorni so‘yib, qonini ol. So‘ngra Horun bilan o‘g‘illarining o‘ng
qulog‘i solinchagiga*, o‘ng qo‘lining bosh barmog‘iga, o‘ng oyog‘ining bosh barmog‘iga
qon surt. So‘ngra qurbongohning to‘rtala yon tomoniga qon sep. 21 Keyin qurbongohdagi
qondan, muqaddas qiladigan moydan olib, Horun bilan o‘g‘illariga, hammalarining
ruhoniylik liboslariga sachrat. Shunday qilib, Horun bilan o‘g‘illari, hammalarining
liboslari muqaddas bo‘ladi.

22 Bu qo‘chqordan Horun va uning o‘g‘illarini ruhoniylikka tayinlash marosimida
foydalaniladi. Shuning uchun qo‘chqorning o‘ng sonini, ichak–chovoqlarini qoplab
turgan hamma yog‘larini, jigarning a’lo qismini, ikkala buyragini va buyrak atrofidagi
yog‘larni ol. 23 Yana Men, Egangizning huzuridagi savatdan sifatli bug‘doy unidan
qilingan xamirturushsiz nondan bittasini, zaytun moyi qo‘shilgan xamirturushsiz
nondan bittasini va zaytun moyi surtilgan xamirturushsiz chalpakdan bittasini ol.

24 Bularning hammasini Horun va o‘g‘illarining qo‘llariga qo‘y. Bularni ular Men,
Egangizga bag‘ishlaganlarini ko‘rsatish uchun yuqoriga ko‘tarishsin. 25 So‘ngra bu
hamma nazrlarni ularning qo‘llaridan olib, qurbongohda birinchi kuydiriladigan
qo‘chqor bilan kuydir. Olovda kuydirilgan bu nazrlardan ham Men, Egangizga yoqimli
hid keladi.

26 So‘ngra ruhoniylikka tayinlash marosimida foydalaniladigan o‘sha ikkinchi
qo‘chqorning to‘shini olib, Men, Egangizga bag‘ishlaganini ko‘rsatish uchun yuqoriga
ko‘tar. Bunisi sening ulushing bo‘ladi.

27 Horun va uning o‘g‘illari Mening huzurimda ruhoniylikka tayinlanish marosimida
qo‘chqorning yuqoriga ko‘tariladigan qismlari — to‘shi va soni muqaddas deb qaraladi.
28 Kelgusida Isroil xalqi Men, Egangizga tinchlik qurbonliklari qilganlarida, bu qismlar
Horun va uning o‘g‘illariga doimiy ulush qilib berilsin.

29 Horunning muqaddas ruhoniylik liboslari o‘zidan keyin uning nasllariniki bo‘lsin.
Horunning nasllariga shu liboslarda moy surtilib, shu liboslarda ular oliy ruhoniylikka
tayinlanadilar. 30 Horunning o‘rniga oliy ruhoniy bo‘lib Muqaddas xonada xizmat qilish
uchun Uchrashuv chodiriga kiradigan o‘g‘li bu liboslarni yetti kun kiyib yursin.

31 Endi ruhoniylikka tayinlanish marosimida qurbonlik qilingan qo‘chqorning
go‘shtini olib, muqaddas joyda qaynat. 32 Horun bilan o‘g‘illari Uchrashuv chodiriga
kiraverishda qo‘chqor go‘shtidan va savatdagi nonlardan* tanovul qilishsin. 33 Faqat ular

bu go‘shtdan va nondan tanovul qila oladilar. Horun va uning o‘g‘illarini ruhoniylikka tayinlash va bag‘ishlash marosimida ularni gunohdan poklash uchun o‘sha non va go‘shtdan foydalaniladi. Bu go‘sht va non muqaddas bo‘lgani uchun ruhoniy bo‘lmagan odamlar bulardan tanovul qila olmaydi. 34 Agar ruhoniylikka tayinlanish marosimida qurbonlik qilingan hayvon go‘shtidan va nonlar nazridan ertalabgacha qolsa, qolganlarini olovda kuydir. Bular muqaddas bo‘lgani uchun tanovul qilish mumkin emas.

35 Men senga amr etganimday, yetti kun davomida har kuni Horun va uning o‘g‘illari uchun ruhoniylikka tayinlanish marosimini takrorla. 36 Ularni gunohlaridan poklash uchun har kuni buqani qurbonlik qil. Qurbongohni poklash uchun marosim o‘tkaz. Qurbongohga moydan surtib, muqaddas qil. 37 Yetti kun davomida har kuni shunday qil. Ana shunda qurbongoh g‘oyat muqaddas bo‘ladi. Birontasi yoki biron narsa qurbongohga tegib ketsa ham, u muqaddas bo‘ladi.

Kundalik nazrlar to‘g‘risida ko‘rsatmalar

38 Har kuni ikkita bir yoshli qo‘zini qurbongohda qurbonlik qilib kuydir. 39 Bitta qo‘zini ertalab, ikkinchisini kechqurun qurbonlik qil. 40-41 Har bir qo‘ziga qo‘shib, ikki kosa* toza zaytun moyi aralashtirilgan to‘rt kosa* sifatli unni don nazri qilib keltir. Shu bilan birga, ikki kosa sharob nazrini ham keltir. Olovda kuydiriladigan bu qurbonliklardan Men, Egangizga yoqimli hid keladi. 42 Kuydiriladigan bu ikki qurbonlik Men, Egangizning huzurida Uchrashuv chodiriga kiraverishda avlodlar osha qilinsin. O‘sha yerda Men sen bilan uchrashib, gaplashaman.

43 Uchrashuv chodirida Men zohir bo‘lib, Isroil xalqi bilan uchrashaman, ulug‘vorligimdan bu joy muqaddas bo‘ladi. 44 Men Uchrashuv chodirini va qurbongohni muqaddas qilaman. Horun bilan o‘g‘illari ruhoniy bo‘lib Menga xizmat qilishlari uchun ularni ham muqaddas qilaman. 45 Men Isroil xalqi orasida istiqomat qilaman, ularning Xudosi bo‘laman. 46 Shunda ular Egasi Xudo Men ekanligimni bilib oladilar. Axir, Men Isroil xalqi orasida istiqomat qilay deb, ularni Misr yurtidan olib chiqqanman. Men ularning Egasi Xudoman.

30–BOB

Tutatqi qurbongohiga oid ko‘rsatmalar

1 Tutatqi tutatish uchun akas yog‘ochidan* qurbongoh* yasat. 2 Qurbongoh to‘rtburchak, uzunligi bir tirsak, eni ham bir tirsak, bo‘yi esa ikki tirsak* bo‘lsin. Qurbongohning to‘rtala burchagiga o‘zidan yo‘nib chiqarilgan bittadan shox yasat. 3 Qurbongohning ustini, yon–atrofini, shoxlarini toza oltin bilan qoplat, aylanasi bo‘ylab oltindan gulchambar yasat. 4-5 Qurbongohning ikki tomonidagi gulchambarning ostiga ikkita oltin halqa o‘rnashtir. Akas yog‘ochidan ikkita xoda yasatib, ularni oltin bilan qoplat. Bu xodalarni halqalardan o‘tkazib, qurbongohni ko‘tarib yurishda foydalan. 6 Tutatqi qurbongohini Ahd sandig‘ining* qopqog‘i oldida osilib turadigan ichki pardaning tashqarisiga qo‘ydir. Bu joy — sen bilan Men uchrashadigan joyning tashqarisida.

7 Horun har kuni ertalab moychiroqlardan xabar olganda bu qurbongohda xushbo‘y tutatqi tutatsin. 8 U kechqurun moychiroqlardan xabar olganda ham tutatqi tutatsin. Bu tutatqi nazrlari sizlarning avlodlaringiz osha Men, Egangizning huzurida har kuni

tutatilishi lozim. 9 Bu qurbongohda faqat muqaddas tutatqini* tutatinglar. Tutatqi
qurbongohida kuydiriladigan qurbonlik keltirmanglar, don nazri yoki sharob nazri ham
qilmanglar. 10 Horun bir yilda bir marta* qurbongohni poklash marosimini o‘tkazsin.
Buning uchun gunoh qurbonligining qonidan qurbongohning to‘rtala shoxiga surtib,
qurbongohni poklasin. Bu marosim har yili avlodlar osha qilinishi lozim. Bu qurbongoh
Men, Egangizga bag‘ishlangan g‘oyat muqaddas qurbongohdir.”

Muqaddas chodir uchun to‘lovlar

11 So‘ngra Egamiz Musoga yana gapirdi: 12 “Isroilda erkaklarni ro‘yxatga olganingda,
ularning har biri Men, Egangizga himoya qiladigan to‘lov* to‘lasin. Shunda sen ularni
sanaganingda, ularga kulfat keltirmayman. 13-14 Ro‘yxatga kiritiladigan yigirma va undan
yuqori yoshdagi har bir odam 1,25 misqol kumushdan* Men, Egangizga nazr qilishi
lozim. 15 Ular o‘zlarini Mening hukmimdan himoya qiladigan nazrni* berganlarida, boy
odam o‘shandan ko‘p bermasin, kambag‘al ham o‘shandan oz bermasin. 16 Bag‘ishlangan
bu kumushni Uchrashuv chodirini yasash uchun sarf qil. Men, Egangizning huzurida bu
kumush Isroil xalqiga hukmimdan himoya qiladigan nazr berilganini eslatib turadi.”

Bronza qo‘lyuvgichga oid ko‘rsatmalar

17 Egamiz Musoga yana gapirdi: 18 “Yuvinish uchun bronzadan qo‘lyuvgich yasat.
Qo‘lyuvgichning tagligi ham bronzadan bo‘lsin. Qo‘lyuvgichni Uchrashuv chodiri bilan
qurbongoh o‘rtasiga o‘rnatib, unga suv quy. 19-20 Horun bilan uning o‘g‘illari Uchrashuv
chodiriga kirayotganlarida, qo‘lyuvgichdagi suv bilan qo‘llarini va oyoqlarini yuvishsin.
Shunda ular nobud bo‘lmaydi. Qurbongohda kuydirgani nazrlar olib kelib Men,
Egangizga xizmat qilganlarida ham, 21 albatta qo‘l–oyoqlarini yuvishsin. Shunda ular
nobud bo‘lmaydi. Bu Horun va uning nasllari uchun avlodlari osha doimiy qonun
bo‘lsin.”

Muqaddas qiladigan moyga oid ko‘rsatmalar

22 Egamiz Musoga yana aytdi: 23 “Quyidagi eng yaxshi xushbo‘y ziravorlardan ol:
1250 misqol* suyuq mirra*, 625 misqol* dolchin, 625 misqol qamish 24 va 1250 misqol
kassiya*. Sakkiz kosa* zaytun moyi olib, 25 usta odam xushbo‘y moy tayyorlash uchun
ziravorlarni moy bilan aralashtirsin. Bu muqaddas qiladigan moydir. 26 Bu moyni
Uchrashuv chodiriga, Ahd sandig‘iga, 27 xontaxtaga va xontaxtaning hamma
buyumlariga, chiroqpoyaga va uning hamma buyumlariga, tutatqi qurbongohiga,
28 qurbonlik kuydiriladigan qurbongohga va uning hamma buyumlariga, qo‘lyuvgichga
va uning tagligiga surt. 29 Shu tariqa bu narsalarni Menga bag‘ishla. Shunda ular g‘oyat
muqaddas bo‘ladi. Birontasi yoki biron narsa ularga tekkanda, muqaddas bo‘ladi.
30 So‘ng Horun bilan o‘g‘illariga bu moydan surtib, ularni bag‘ishla, toki ular ruhoniy
bo‘lib Menga xizmat qilishsin. 31 Isroil xalqiga esa Mening shu gapimni yetkaz:

— Muqaddas qiladigan moy sizlarning butun avlodlaringiz osha Menga
bag‘ishlansin. 32 Bu moy ruhoniy bo‘lmagan odamning tanasiga surtilmasligi kerak. Shu
tarkibdagi moy aralashmasini sizlar tayyorlamanglar. Chunki bu moy muqaddasdir,
sizlar bunga muqaddas deb qarashingiz lozim. 33 Kimki bunga o‘xshash hidli moyni
tayyorlasa yoki bu moydan ruhoniy bo‘lmagan odam ustiga surtsa, u Isroil xalqi
orasidan yo‘q qilinadi.”

Xushbo‘y hidli tutatqiga oid ko‘rsatmalar

34-35 Egamiz yana Musoga gapirdi: “Quyidagi xushbo‘y ziravorlarni olib, ularni
aralashtir: yelimdan qilingan ziravor, moluska qobig‘idan qilingan ziravor, xilvon.
So‘ngra usta odam toza xushbo‘y tutatqidan, xushbo‘y aralashmadan bir o‘lchovda olsin.
Ularni tuz bilan aralashtirib, toza, muqaddas bo‘ladigan tutatqi qilsin. 36 Bu tutatqidan
bir qismini olib, mayda qilib tuygin va Men sen bilan uchrashadigan Uchrashuv
chodiridagi Ahd sandig‘i* oldiga qo‘y. Bu tutatqini sizlar g‘oyat muqaddas deb
bilishingiz lozim. 37 O‘sha tarkibdagi tutatqi aralashmasini o‘zlaringiz uchun qilmanglar.
Buni Men, Egangizga bag‘ishlangan muqaddas tutatqi deb biling. 38 Kimki tutatgani
o‘zicha shunga o‘xshagan tutatqi qilsa, u Isroil xalqi orasidan yo‘q qilinadi.”

31–BOB

Egamiz Muqaddas chodirni yasash uchun mohir ustalarni tanlaydi

1 Egamiz Musoga yana gapirdi: 2 “Ana, Men Yahudo qabilasidan Urining o‘g‘li,
Xurning nabirasi Bazalilni tanladim. 3 Men uni Ruhim bilan to‘ldirib,
hunarmandchilikning hamma turi bo‘yicha mohir va idrokli qildim, qobiliyat ato etdim.
4 U ajoyib badiiy bezaklar qilishga, bezaklarga oltin, kumush va bronza bilan ishlov
berishga, 5 qimmatbaho toshlarni o‘yishga, ularga ishlov berib jihozlashga, yog‘och
o‘ymakorligiga, badiiy hunarmandchilikka layoqatlidir. 6 Dan qabilasidan Oxisamax o‘g‘li
Oxoliyovni unga yordamchi qilib tanladim. Men hamma hunarmandlarga lozim darajada
qobiliyat ato qilganman. Men senga amr bergan quyidagi ashyolarni ular yasaydilar va
tikadilar:

7 Uchrashuv chodirini,
Ahd sandig‘i* va Sandiqning qopqog‘ini,
Chodirning boshqa hamma jihozlari 8 — xontaxta, xontaxtaning buyumlari, toza
oltindan chiroqpoya va chiroqpoyaning hamma buyumlarini, tutatqi
qurbongohini, 9 qurbonlik kuydiriladigan qurbongoh va qurbongohning
hamma buyumlarini, qo‘lyuvgich va qo‘lyuvgichning tagligini,
10 ruhoniy Horun uchun ajoyib qilib tikilgan muqaddas liboslarni, uning o‘g‘illari
ruhoniy bo‘lib xizmat qilganlarida kiyadigan liboslarni,
11 muqaddas qiladigan moy* va Muqaddas xona uchun xushbo‘y tutatqini.

Men senga qanday amr etgan bo‘lsam, ular xuddi shunday qilib bajarishsin.”

Shabbat kuni to‘g‘risidagi amr

12 So‘ngra Egamiz Musoga aytdi:
13 — Isroil xalqiga Mening shu gapimni yetkaz: “Menga bag‘ishlangan Shabbat kuniga
rioya qilib yuringlar. Avlodlaringiz osha Shabbat kuni Men bilan sizlarning orangizda
alomat bo‘lib xizmat qiladi. Shu orqali Egangiz Men ekanligimni bilib olasizlar. Sizlarni
Men muqaddas qilib boshqalardan ajrataman. 14 Shabbat kuniga rioya qilib yuringlar, bu
kunni muqaddas deb bilinglar. Kimki bu kunni izzat qilmasa, o‘sha odamning jazosi
o‘limdir. Kimki o‘sha kuni ishlasa, u Isroil xalqi orasidan yo‘q qilinadi. 15 Hamma
ishlaringizni bajarishingiz uchun olti kun bor. Yettinchi kun — Shabbat kuni esa hamma
ishlardan tinib, Men, Egangizga atab ajratilgan kundir. Kim Shabbat kuni ishlasa,

o‘shaning jazosi o‘limdir. 16 Isroil xalqi avlodlar osha Shabbat qonun–qoidalariga itoat
etish orqali bu kunga rioya qilib yurishlari lozim. 17 Bu sen bilan Mening o‘rtamizdagi
ahdning doimiy alomatidir, Men, Egangiz, olti kun davomida yer va osmonni yaratib,
yettinchi kuni tinib, orom olganimni doimo eslatib turadi.”
18 Shunday qilib, Xudo Sinay tog‘ida Muso bilan gapini tugatib*, unga ikkita tosh
lavhani berdi. Lavhalarga bitilgan ahdning* amr va qonunlarini Xudoning O‘zi yozgan
edi.

32–BOB

Oltin buqa

1 Muso tog‘da uzoq qolib ketdi*. Xalq Musoning tog‘dan qaytib tushavermaganini
ko‘rgach, Horunning yoniga yig‘ilishib, unga aytishdi:
— Qani, bizga xudo yasab ber, u bizni yo‘lda boshlab borsin. Bizni Misrdan olib
chiqqan o‘sha odamga — Musoga nima bo‘lganini bilolmayapmiz.
2 Shunda Horun odamlarga:
— Xotiningiz va o‘g‘il–qizlaringiz quloqlaridagi oltin sirg‘alarni yechib olib, menga
keltiringlar, — dedi.
3 Shundan keyin jamiki xalq quloqlaridagi oltin sirg‘alarni yechib, Horunga olib keldi.
4 Horun buqa yasadi. Xalqdan olgan oltin sirg‘alarni eritib, asbob yordamida buqani oltin
bilan qopladi*. Shunda odamlar dedilar:
— Ey Isroil! Mana bizni Misrdan olib chiqqan xudoyimiz!
5 Horun buni ko‘rgach, oltin buqaning oldiga qurbongoh qurdi. Keyin: “Ertaga
Egangizga bag‘ishlangan bayram bo‘ladi”, deb e’lon qildi. 6 Ertasi kuni xalq saharda
turib, kuydiriladigan qurbonliklarni va tinchlik qurbonliklarini keltirdi. O‘tirib yeb–
ichishganidan keyin ko‘ngilxushlik qilishdi.
7 Shunda Egamiz Musoga aytdi:
— Hoziroq tush! O‘zing Misrdan olib chiqqan xalqing yo‘ldan ozdi. 8 Ular Men amr
etgan yo‘ldan darrov og‘dilar. O‘zlariga buqaning tasvirini yasab, unga sajda qilib,
qurbonliklar keltirib: “Ey Isroil! Mana bizni Misrdan olib chiqqan xudoyimiz!” —
dedilar.
9 Egamiz Musoga yana gapirdi:
— O‘sha xalqning naqadar o‘jarligini ko‘rib turibman. 10 Endi Meni to‘xtataman deb
ovora bo‘lma, bu xalqqa shunaqangi g‘azabimni sochamanki, ularni qirib tashlayman. Ey
Muso, ularning o‘rniga sendan buyuk xalq yarataman.
11 Shunda Muso Egasi Xudoga:
— Ey Egam! — deb yolvordi, — axir, bu xalqni buyuk kuch–qudrating bilan Misrdan
O‘zing olib chiqqansan–ku! O‘z xalqingga O‘zing g‘azabingni sochmagin! 12 Misrliklar:
“Egasi ularni yomon niyat bilan — tog‘larda o‘ldirish uchun, yer yuzidan qirib tashlash
uchun bu yerdan olib chiqqan ekan”, deb aytishmasin! Qo‘ygin, bu niyatingdan qaytgin,
g‘azabingni sochib, O‘z xalqingni qirib tashlamagin. 13 O‘z qullaring Ibrohim, Is’hoq va
Yoqubga* aytganlaringni yodingda tutgin. Sen ularga: “Sizlarning naslingizni osmondagi
yulduzlar singari ko‘paytiraman, Men va’da qilgan hamma yerni naslingizga beraman,
ular o‘sha yurtga to abad egalik qiladilar”, deb O‘z noming bilan ont ichgan eding–ku!
14 Shunday qilib, Egamiz niyatini o‘zgartirib, aytgan kulfatlarni O‘z xalqining boshiga

keltirmaydigan bo‘ldi.

15 Muso tog‘dan qaytib tushdi. U qo‘liga ahdning* ikkita tosh lavhasini ko‘tarib olgan
edi. Lavhalarning ikkala tomoniga ham amr va qonunlar bitilgandi. 16 Bu lavhalar
Xudoning ijodi bo‘lib, lavhalardagi yozuvni Xudo o‘yib bitgan edi. 17 Yoshua xalqning
shovqin–suronini eshitib, Musoga: “Qarorgohda urush shovqin–suroni eshitilyapti”, deb
aytdi. 18 Shunda Muso dedi:

— Bu g‘oliblarning hayqirig‘i emas, mag‘lublarning faryodi ham emas, eshitganim —
ishratparastlar qo‘shig‘i.

19 Muso qarorgohga yaqinlashib, buqani, odamlarning ko‘ngilxushligini ko‘rdi.
Shunda u g‘azablanib, tog‘ etagida qo‘lidagi lavhalarni uloqtirgan edi, lavhalar
chilparchin bo‘ldi. 20 Muso Isroil xalqi yasagan buqani olib, olovda yoqdi. Uni ezib, kukun
qildi–da, suvga sochdi*. Suvni Isroil xalqiga ichirdi. 21 Muso Horunga:

— Bu xalq senga nima qilgan ediki, ularni og‘ir gunohga botiribsan? — dedi.

22 — G‘azablanmang, hazratim, — dedi Horun unga. — Bu xalqning yomonlik
qilishga moyilligini bilasiz–ku! 23 Ular menga: “Bizga xudo yasab ber, u bizni yo‘lda
boshlab borsin, chunki bizni Misrdan olib chiqqan o‘sha odamga — Musoga nima
bo‘lganini bilolmayapmiz”, deb aytishdi. 24 Men esa ularga: “Kimning oltin sirg‘alari
bo‘lsa, ularni menga olib kelinglar”, degan edim, ular oltin sirg‘alarini olib, menga
keltirdilar. Oltinlarni olovga tashlaganimda, olov ichidan mana shu buqa kelib chiqdi.

25 Muso ko‘rdiki, Horun xalqni nazorat qilmay, dushmanlari oldida o‘zlarini masxara
qilishlariga yo‘l qo‘yib bergan edi. 26 Muso qarorgohning kiraverishiga kelib:

— Kim Egamiz tomonda bo‘lsa, mening yonimga kelsin! — deb buyurdi. Levilar
uning yoniga to‘plandi. 27 Muso ularga dedi:

— Isroil xalqining Xudosi — Egamiz shunday aytmoqda: “Har biringiz qilichingizni
oling. Qarorgohning hamma yog‘ini aylanib, birodaringizni, qo‘shningizni va yaqin
qarindoshingizni o‘ldiring*.”

28 Levilar Musoning buyrug‘ini bajardilar. Shu kuni Isroil xalqidan taxminan uch
mingta odam halok bo‘ldi. 29 Muso levilarga:

— Bugun Egam sizlarga marhamat qilib, sizlarni O‘zining xizmatiga tayinladi, —
dedi. — Hatto o‘g‘illaringizni, aka–ukalaringizni o‘ldirishga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa ham,
sizlar Unga itoat etdingiz.

30 Ertasi kuni Muso xalqqa dedi:

— Sizlar og‘ir gunoh qildingizlar. Endi men toqqa Egamizning oldiga chiqaman, balki
sizlarni gunohlaringizdan poklarman.

31 Muso Egamizning oldiga qaytib borib, shunday dedi:

— Evoh! Bu xalq og‘ir gunoh qilibdi: o‘zlariga oltindan xudo yasabdi. 32 Ammo endi,
ularning gunohini kechirgin, deb Senga iltijo qilaman. Agar kechirmasang, O‘zing yozgan
kitobdan mening nomimni o‘chirib tashlagin.

33 Shunda Egamiz Musoga aytdi:

— Kim Menga qarshi gunoh qilgan bo‘lsa, o‘shaning nomini O‘zimning kitobimdan
o‘chirib tashlayman. 34 Endi bor, bu xalqni Men senga aytgan joyga boshla. Mening
farishtam sendan oldinda boradi. Shunga qaramay, O‘zim belgilagan kunda Men ularni
qilgan gunohi uchun jazolayman.

35 Shunday qilib, Egamiz ularning boshiga kulfat yubordi, chunki Isroil xalqi
Horunga, bizga buqa yasab ber, deb talab qilgan edilar. Horun ularning talabini

bajargandi.

33–BOB

Egamiz Isroil xalqiga, Sinayni tark etinglar, deb amr beradi

1 Keyin Egamiz Musoga aytdi:

— Qani, sen ham, Misrdan o‘zing olib chiqqan xalqing ham bu joydan ketinglar. Ota–bobolaringiz Ibrohim, Is’hoq va Yoqubga Men: “Sizlarning naslingizga beraman”, deb qasam ichgan yurtga boringlar. 2 Sendan oldinda farishtani yuborib, Kan’on, Amor, Xet, Pariz, Xiv va Yobus xalqlarini haydayman. 3 Sut va asal oqib yotgan o‘sha yurtga* ketinglar. Ammo Men sizlar bilan bormayman, chunki sizlar o‘jar xalqsiz. Sizlar bilan borsam, sizlarni yo‘lda halok qilib tashlashim mumkin. 4-5 Isroil xalqiga Mening shu gapimni yetkaz: “Sizlar o‘jar xalqsiz. Agar Men bir lahza sizlar bilan borsam, sizlarni qirib tashlashim mumkin. Endi zeb–ziynatlaringizni yechib qo‘yinglar. Men sizlarni nima qilishim to‘g‘risida bir qarorga kelaman.”

Xalq bu vahimali gapni eshitgach, dod solib yig‘ladi. Hech kim zeb–ziynatlarini taqmadi. 6 Shunday qilib, Isroil xalqi Sinay tog‘ida* zeb–ziynatlarini yechib qo‘ydi. O‘shandan keyin ular zeb–ziynatlarini boshqa taqmadilar.

Qarorgohning tashqarisidagi chodir

7 Muso bir chodirni qarorgohning tashqarisiga — qarorgohdan uzoqroqqa olib borib o‘rnatdi. Bu chodirga u Uchrashuv chodiri* deb nom berdi. Egamizdan maslahat so‘ramoqchi bo‘lgan har bir odam o‘sha yerga kelardi. 8 Muso Uchrashuv chodiriga borganda, butun xalq turib, o‘z chodirining kiraverishida chiqib turardi. Muso chodirga kirib ketguncha, hamma tik turganicha uning orqasidan qarab turardi. 9 Muso chodirga kirib, Egamiz Muso bilan gaplashganda, ustun shaklidagi bulut pastga tushib, chodirning kiraverishida turardi. 10 Butun xalq buni ko‘rganda, o‘z chodirlari kiraverishida muk tushib ta’zim qilardi. 11 Birortasi do‘sti bilan gaplashganday, Egamiz ham Muso bilan yuzma–yuz* gaplashardi. Keyin Muso qarorgohga qaytib kelar, uning yosh yordamchisi Nun o‘g‘li Yoshua esa chodirni tark etmasdi.

Egamiz O‘z xalqi bilan birga bo‘lishga va’da beradi

12 Shundan keyin Muso Egamizga aytdi:

— Sen: “Bu xalqni boshlab olib ket”, deb menga amr berding–u, lekin biz bilan kimni yuborishingni aytmading. Yana: “Men seni tanladim, sen haqiqatan Mendan marhamat topgansan”, degan eding. 13 Agar men Sendan marhamat topgan bo‘lsam, iltijo qilaman: menga yo‘llaringni ko‘rsatgin. Sendan marhamat topib yurishim uchun Seni bilayin. Bu xalq O‘zingning xalqing ekanini yodingda tutgin.

14 Egamiz Musoga dedi:

— Men sizlar bilan boraman. Sizlarga tinchlik ato qilaman.

15 Muso esa Egamizga aytdi:

— Agar Sen biz bilan bormaydigan bo‘lsang, bizni bu yerdan olib chiqmagin. 16 Bo‘lmasa, men va xalqingdan mamnun ekanligimiz nimadan bilinadi? Biz bilan birga borganingdan emasmi?! Yer yuzidagi hamma xalqlardan bizning farqimiz ham shu emasmi?!

17 Shunda Egamiz Musoga aytdi:

— Sen nimani so‘ragan bo‘lsang, Men shuni qilaman. Chunki sen Mendan marhamat topgansan. Men seni tanladim.

18 — Iltijo qilaman: menga ulug‘vorligingni zohir qilgin, — dedi Muso.

19 — Men O‘zimni senga ma’lum qilaman*. Men sening oldingdan o‘tib, butun ezguligimni senga zohir qilaman, — dedi Egamiz Musoga. — Marhamat qiladiganimga marhamat qilaman, shafqat qiladiganimga shafqat qilaman. 20 Lekin Mening yuzimni* ko‘ra olmaysan. Meni ko‘rgan odam tirik qolmaydi. 21 Menga yaqin joyda qoya bor. O‘sha qoyaning ustida tur! 22 Men o‘tayotib ulug‘vorligimni zohir qilganimda, seni qoyaning yoriq joyiga qo‘yaman. O‘tib ketgunimcha seni qo‘lim bilan to‘sib turaman. 23 Keyin qo‘limni olaman. Sen Meni orqamdan ko‘rasan. Yuzimni esa ko‘rmaysan.

34–BOB

Egamiz xalq bilan tuzgan ahdni tasdiqlaydi

1 Egamiz Musoga amr berdi:

— Ikkita tosh lavhani kesib ol. Ular oldingilariga o‘xshagan bo‘lsin. Men o‘sha tosh lavhalarga sen sindirgan lavhalardagi amrlarni yozaman. 2 Ertalabga tayyor bo‘l, Sinay tog‘iga chiqib, tog‘ cho‘qqisida Meni kutib olishga hozir bo‘lib tur. 3 Lekin sen bilan birga hech kim chiqmasin. Tog‘ning biror joyida hech kim bo‘lmasin. Tog‘ning yaqinida hattoki mol–qo‘ylar ham boqilmasin.

4 Egamiz amr etganday, Muso oldingilariga o‘xshagan ikkita tosh lavhani kesdi. Ertasiga saharda turib, qo‘liga ikkala tosh lavhani olib, Sinay tog‘iga chiqdi. 5 Egamiz bulut ichida tushib keldi. Muso bilan birga turib, O‘zini Musoga ma’lum qildi*.
6 Musoning oldidan o‘tib, baland ovoz bilan gapirdi:

— Men Egangman! Men Egangman!* Rahmdil va inoyatli, jahli tez chiqmaydigan Xudoman, sevgim va sadoqatim mo‘ldir. 7 Ming–ming avlodlarga* sodiq sevgimni ko‘rsataveraman. Fosiqlikni, isyonni va gunohlarni kechiraman. Lekin aybdorlarni aslo jazosiz qoldirmayman. Men ularni jazolayman, ularning gunohlari oqibatidan farzandlari, nabiralari va chevaralari ham qochib qutulmaydi.

8 O‘sha zahoti Muso ikki bukilib ta’zim aylab, sajda qildi. 9 So‘ngra:

— Yo Rabbiy! — dedi. — Agar men Sendan marhamat topgan bo‘lsam, iltijo qilaman, Sen biz bilan borgin. Bu xalq o‘jar bo‘lsa ham, fosiqligimizni va gunohlarimizni kechirgin, bizni O‘zingning xalqing qilib qabul et.

10 Egamiz aytdi: “Men endi Isroil xalqi bilan ahd tuzaman. Butun xalqing ko‘zi oldida ajoyibotlar ko‘rsataman. Bunaqa ajoyibotlar yer yuzida yoki bironta xalq orasida bo‘lmagan. Men, Egangiz, sizlarga ko‘rsatadigan o‘sha dahshatli ishni sen bilan birga bo‘lgan butun xalq ko‘radi. 11 Men sizlarga bugun beradigan amrlarga itoat qilinglar. Men sizlarning oldingizdan Amor, Kan’on, Xet, Pariz, Xiv va Yobus xalqlarini quvaman.
12 Ehtiyot bo‘linglar, sizlar kiradigan yurtning aholisi bilan sulh tuzmanglar. Bo‘lmasa, sizlarni tuzog‘iga ilintirib oladi. 13 Sizlar ularning qurbongohlarini buzinglar, butsimon toshlarini maydalab tashlanglar, Asheraga* atalgan ustunlarni kesib tashlanglar.
14 Boshqa xudolarga sajda qilmanglar. Men, Egangizning nomi Rashkchidir: Men sizlarning sevgingizni boshqa xudolar bilan baham ko‘rmaydigan Xudoman. 15 O‘sha yurtning aholisi bilan sulh tuzmanglar. Ular o‘z xudolari ortidan hirs bilan ergashadilar. Ular bilan sulh tuzsangiz, o‘z xudolariga qurbonliklar keltirayotganlarida sizlarni ham

oʻzlariga qoʻshilishga taklif qiladilar. Sizlar ular bilan borib, qurbonliklaridan tanovul qilasiz. 16 Keyin ularning qizlarini oʻgʻillaringizga olib berasizlar. Ular oʻz xudolariga hirs bilan sajda qilganda, oʻgʻillaringizni ham oʻsha xudolarga hirs qoʻyishga boshlaydilar.

17 Oʻzlaringizga xudolar tasvirlarini* yasamanglar.

18 Xamirturushsiz non bayramini har yili nishonlanglar. Men sizlarga amr etganimday, Abib oyining* belgilangan vaqtida* yetti kun xamirturushsiz non yenglar, chunki sizlar Abib oyida Misrdan chiqqansizlar.

19 Toʻngʻich oʻgʻillaringiz, hamma chorvangizning — mol–qoʻylaringizning birinchi tugʻilgan erkak bolasi Meniki. 20 Eshakning* tugʻilgan birinchi erkak bolasini Egamizdan bir qoʻzi yoki uloqcha evaziga sotib olinglar. Agar eshakni qaytarib sotib olmaslikka qaror qilsangiz, eshakning boʻynini sindirib oʻldirishingiz kerak. Sizlar Egamizdan hamma toʻngʻich oʻgʻillarni ham qaytarib sotib olishingiz lozim*.

Har kim Mening huzurimga munosib nazrlar olib kelishi lozim*.

21 Hamma ishlaringizni bajarishingiz uchun olti kun bor. Yettinchi kun esa ish qilmanglar. Hatto ekin–tikin paytida ham, oʻrim–yigʻim paytida ham dam olinglar.

22 Har yili bugʻdoy oʻrimini yigʻishtirishni boshlaganingizda, dalangizga ekkan urugʻning ilk hosilidan nazr qilinglar. Shu orqali Hosil bayramini* nishonlanglar. Kuzda Chayla bayramini* nishonlanglar.

23 Hamma erkaklaringiz har yili uchala bayramda* Men, Isroil xalqining Xudosi — Egangiz Rabbiyning huzuriga kelib sajda qilsin. 24 Sizlarning yeringizdan xalqlarni quvaman, chegaralaringizni kengaytiraman. Har yili uch marta* Men, Egangiz Xudoga sajda qilishga kelganingizda, sizlarning mulkingiz boʻlgan yerni hech kim bosib olmaydi.

25 Menga qilingan qurbonlikning qonini xamirturush qoʻshilgan non bilan birga nazr qilmanglar. Fisih ziyofatining qurbonlik goʻshtini ertalabgacha qoldirmanglar.

26 Yeringizdan olgan ilk hosilning eng yaxshisini Men, Egangiz Xudoning uyiga olib kelinglar.

Uloqchani onasining sutida qaynatmanglar*.”

27 Keyin Egamiz Musoga:

— Bu soʻzlarni yozib ol! — deb amr qildi. — Shu soʻzlarga binoan Men sen bilan hamda Isroil xalqi bilan ahd tuzaman.

28 Muso oʻsha yerda Egamizning huzurida yemay–ichmay, qirq kechayu qirq kunduz boʻldi. Egamiz ikkita tosh lavhaga ahd soʻzlarini — oʻnta amrni yozdi.

Musoning yuzidan nur yogʻiladi

29 Muso qoʻliga ikkita lavhani* olib, togʻdan tushdi. U Xudo bilan gaplashgani uchun yuzidan nur sochilar edi. Musoning oʻzi esa buni bilmasdi. 30 Horun ham, jamiki Isroil xalqi ham Musoni koʻrib, uning yuzidan nur yogʻilib turgani uchun birortasi unga yaqin kelishga qoʻrqardi. 31 Muso Horunni va barcha jamoa oqsoqollarini chaqirdi, ular Musoning oldiga kelishdi. Muso ular bilan gaplashgandan keyin, 32 jamiki Isroil xalqi unga yaqinroq keldi. Muso Sinay togʻida Egamiz bergan amrlarni bajarishni xalqqa buyurdi. 33 Muso ular bilan gaplashib boʻlgandan keyin, yuziga yopinchiq yopib oldi.

34 Muso Egamizga gapirish uchun Uning huzuriga borganda, yuzidagi yopinchiqni olib tashlar edi. U chiqib, Egamiz, ayt, deb buyurgan hamma amrni Isroil xalqiga yetkazardi. Shunda Isroil xalqi 35 Musoning yuzi hamon nur sochib turganini koʻrardi. Soʻngra Muso keyingi safar Egamiz bilan gaplashish uchun borguniga qadar yuzini yopib

olardi.

35–BOB

Shabbat kuni to‘g‘risidagi amr

1 So‘ngra Muso Isroil xalqining butun jamoasini to‘plab, ularga gapirdi:
— Sizlarga Egamizning amri shunday: 2 “Hamma ishlaringizni bajarishingiz uchun
olti kun bor. Yettinchi kun esa Egamizga atab ajratilgan Shabbat kunidir. Bu kunda
hamma ishlaringizdan tininglar. Kimki Shabbat kuni ishlasa, o‘sha odamning jazosi
o‘limdir. 3 Shabbat kuni bironta maskaningizda ham olov yoqmanglar.”

Muqaddas chodir yasash uchun tayyorgarlik

4 Keyin Muso Isroil xalqining butun jamoasiga aytdi:
— Egamiz sizlarga quyidagilarni amr etdi: 5 “Men, Egangizga chin ko‘ngildan nazr
qilmoqchi bo‘lgan odam o‘z nazrini olib kelsin. Xalq Menga quyidagilarni nazr qilsin:
oltin, kumush, bronza, 6 shuningdek, ko‘k, safsar va qirmizi rangli iplar, mayin zig‘ir
matosi, echki juni, 7 qizilga bo‘yalgan qo‘chqor terisi, yumshoq teri*, akas yog‘ochi*,
8 moychiroqlar uchun zaytun moyi, muqaddas qiladigan moy* uchun ziravorlar,
xushbo‘y tutatqi uchun ziravorlar, 9 efod va ko‘krakpechga taqiladigan aqiq hamda
boshqa qimmatbaho toshlar. 10 Oralaringizdan mohir ustalar kelib, Men, Egangiz, amr
qilgan Muqaddas chodirni yasashsin. Chodir quyidagi ashyolardan iborat bo‘lsin:

11 Chodirning ichki qavati, uning yopinchiqlari, ilgaklari, romlari, tambalari,
ustunlari va tagliklari,
12 Sandiq, uning xodalari, qopqog‘i va Sandiqni to‘sib turadigan ichki parda,
13 xontaxta, uning xodalari, hamma buyumlari va unga qo‘yiladigan muqaddas
nonlar*,
14 yorug‘ bo‘lishi uchun chiroqpoya, uning buyumlari, moychiroqlari va
moychiroqlar uchun zaytun moyi,
15 tutatqi qurbongohi va uning xodalari,
muqaddas qiladigan moy va xushbo‘y tutatqi,
Muqaddas chodirga kiraverishdagi parda,
16 qurbonlik kuydiriladigan qurbongoh, uning bronza panjarasi, xodalari va
hamma buyumlari,
qo‘lyuvgich va uning tagligi,
17 hovlini to‘sib turadigan pardalar, pardalarni ushlab turadigan ustunlar,
ustunlarning tagliklari va hovliga kiraverishdagi parda,
18 Muqaddas chodir bilan hovli uchun qoziqlar va arqonlar,
19 ruhoniy Horun va uning o‘g‘illari Muqaddas xonada xizmat qilganda kiyadigan,
ajoyib qilib tikilgan muqaddas liboslar.”

Xalq Muqaddas chodir uchun nazrlar olib keladi

20 Shunday qilib, Isroil xalqining butun jamoasi Musoning yonidan qaytib ketdi.
21 Yuragi zavqqa to‘lgan har bir odam borib, Uchrashuv chodirini va Chodirda doimiy
xizmatlarda foydalaniladigan ashyolarni qilish uchun, muqaddas ruhoniylik liboslarini
tikish uchun Egamizga nazrlar olib kelishdi. 22 Shunday qilib, yuragi zavq–shavqqa

to‘lgan barcha erkagu ayollar turli xil oltin taqinchoqlarni — jig‘a, sirg‘a, uzuk, marjonlarni olib kelishdi. Bularni Egamizga bag‘ishlaganlarini ko‘rsatish uchun ular oltin taqinchoqlarini yuqoriga ko‘tardilar. 23 Kimda ko‘k, safsar va qirmizi ip, mayin zig‘ir matosi, echki juni, qizilga bo‘yalgan qo‘chqor terisi, yumshoq teri* bo‘lsa, olib keldi. 24 Kim kumush yoki bronzani Egamizga nazr qilishga qodir bo‘lsa, uni olib kelib, Egamizga nazr qildi. Kimda akas yog‘ochi bo‘lsa, Chodirni va uning ashyolarini tayyorlashda foydalangani olib keldi. 25 Ip yigirishga mohir ayollar o‘z qo‘llari bilan yigirgan ko‘k, safsar va qirmizi ipni hamda mayin zig‘irdan yigirilgan ipni nazr qilib olib kelishdi. 26 Echki junidan ip yigirishga mohir ayollar yuragi zavqqa to‘lib, echki junidan ip yigirib olib keldilar. 27 Oqsoqollar efod va ko‘krakpechga taqish uchun aqiq va boshqa qimmatbaho toshlar, 28 shuningdek, moychiroqlar, muqaddas qiladigan moy uchun ziravorlar, xushbo‘y tutatqi uchun ziravorlar va zaytun moyi olib kelishdi. 29 Yuragi zavq–shavqqa to‘lgan Isroil xalqining erkagu ayollari Muso orqali Egamiz amr etgan hamma ishni bajargani Egamizga ko‘ngildan chiqarib nazrlar olib kelishdi.

Muqaddas chodirni yasaydigan mohir ustalar

30 Keyin Muso Isroil xalqiga aytdi*: “Ana, Egamiz Yahudo qabilasidan Urining o‘g‘li, Xurning nabirasi Bazalilni tanladi. 31 Egamiz uni O‘z Ruhi bilan to‘ldirib, hunarmandchilikning hamma turi bo‘yicha mohir va idrokli qildi, qobiliyat ato etdi. 32 U ajoyib badiiy bezaklar qilishga va bularga oltin, kumush va bronza bilan ishlov berishga, 33 qimmatbaho toshlarni o‘yishga, ularga ishlov berib jihozlashga, yog‘och o‘ymakorligiga, badiiy hunarmandchilikka layoqatli qildi. 34 Egamiz Bazalilga va Dan qabilasidan Oxisamaxning o‘g‘li Oxoliyovga o‘z mahoratini boshqalarga o‘rgatish iqtidorini ato qildi. 35 Bu odamlar har qanday ishni bajara olsin deb, Egamiz ularga mahorat ato qildi. Ular har qanday ashyodan har turli buyumlar qilishga qodirdir. Ular ijod qilib, buyumlar yasay oladilar, to‘qishni biladilar, ko‘k, safsar, qirmizi iplardan foydalanib, mayin zig‘ir matosiga naqsh solishni biladilar. Ular har turli ishlarni bajarishga mohir hunarmanddirlar.

36–BOB

1 Bazalil, Oxoliyov va boshqa hamma iqtidorli ustalar Egamiz amr etgan hamma ishlarni bajarsinlar. Muqaddas chodir yasashda talab qilingan har qanday xizmatni bajarishlari uchun Egamiz ularga mahorat va qobiliyat ato qilgan.”

2 Muso Bazalilni, Oxoliyovni va Egamiz qobiliyat ato qilgan hamma iqtidorli ustalarni, yuragi zavqqa to‘lgan odamlarni chaqirdi.

3 Muqaddas chodirni yasash uchun Isroil xalqi olib kelgan hamma nazrlarni Muso ustalarga berdi. Bulardan tashqari, xalq har kuni ertalab Musoga ko‘ngildan chiqarib nazrlar olib kelishardi. 4 Ishlarni bajarayotgan hamma ustalar yumushlarini tashlab, 5 Musoning oldiga kelib aytishdi:

— Egamiz bizga amr etgan ishlar uchun xalq keragidan ortiq olib kelyapti.

6 Shunda Muso: “Bironta erkak, ayol endi Muqaddas chodir uchun nazr olib kelmasin”, deb buyruq berdi. Uning buyrug‘i qarorgoh bo‘ylab e’lon qilindi. Shundan keyin xalq nazr olib kelishni to‘xtatdi. 7 Xalqning olib kelgan nazrlari ishning hammasini bajarishga yetib, hatto ortib ham qolar edi.

Muqaddas chodir yasaladi

8 Ishlayotganlar orasidagi eng mohir odamlar Muqaddas chodirni* yasadilar:

Chodirning ichki qavati

Mohir tikuvchilar Bazalilning ko‘rsatmasi bilan Chodirning ichki qavatini qildilar. U mayin zig‘ir matosidan tikilgan o‘nta choyshabdan iborat bo‘ldi. Ko‘k, safsar va qirmizi iplar bilan karublar tasvirini mahorat bilan solib, bu choyshablarni bezatdilar. 9 Har bir choyshabning bo‘yi yigirma sakkiz tirsak, eni to‘rt tirsak* edi. Hamma choyshablarning o‘lchovi bir xil edi. 10 Ular choyshablardan beshtasining bo‘yini bir–biri bilan birlashtirib tikdilar, qolgan beshtasini ham shunday qildilar. 11-12 Hosil bo‘lgan ikki uzun bo‘lak choyshabning bo‘yiga ko‘k matodan elliktadan halqa tikdilar. Har ikki tomonga tikilgan halqalar bir–biriga ro‘parama–ro‘para edi. 13 Keyin oltindan ellikta ilgak yasadilar, ikkala choyshabning halqalarini ilgaklar bilan bir–biriga uladilar. Shunda Chodirning ichki qavati bir butun bo‘ldi*.

Chodirning tashqi qoplamalari

14 Muqaddas chodirning qoplamasi uchun echki juni matosidan o‘n bitta choyshab tikdilar. 15 Har bitta choyshabning bo‘yi o‘ttiz tirsak, eni to‘rt tirsak* edi. O‘n bitta choyshabning hammasi bir o‘lchovda edi. 16 Choyshablardan beshtasining bo‘yini bir–biri bilan birlashtirib tikdilar, qolgan oltitasini ham shunday qildilar. 17 Ulangan ikki bo‘lak choyshabning bir bo‘yiga elliktadan halqa tikdilar. 18 Keyin, Chodirning qoplamasi bir butun bo‘lsin* deb, ikkala choyshabni birlashtirish uchun bronzadan ellikta ilgak yasadilar. 19 Bu qoplama ustiga qo‘yish uchun qizilga bo‘yalgan qo‘chqor terisidan qoplama, so‘ng yumshoq teridan* tashqi qoplama qildilar.

Chodirni tutib turadigan rom

20 Akas yog‘ochidan* Muqaddas chodirni tutib turadigan romlar* yasadilar. 21 Har bir romning bo‘yi o‘n tirsak, eni bir yarim tirsak* edi. 22 Har bir romning ostida bir–biriga parallel bo‘lgan ikkita tirgak yasadilar. 23 Chodirning janub tomonidagi devor uchun yigirmata rom yasadilar. 24 Bu romlar ostiga qo‘yish uchun kumushdan qirqta taglik — har bir rom uchun ikkitadan taglik qildilar, har bir tirgak ostida bitta taglik bo‘ldi. 25 Chodirning shimol tomonidagi devori uchun yigirmata rom yasadilar. 26 Har bir rom ostiga qo‘yish uchun ikkitadan, jami qirqta kumush taglik yasadilar. 27 Chodirning orqadagi — g‘arb tomonidagi devor uchun oltita rom, 28 Chodirning orqasida burchaklar hosil qilish uchun har ikki tomoniga yana bittadan rom yasadilar. 29 Bu ikkala romni pastdan va yuqoridan tutashgan devordagi oxirgi romga birlashtirdilar. Bitta burchak hosil qilishi uchun bitta halqa bilan yaxlit qilib birlashtirdilar. Har ikkala burchak shu yo‘l bilan hosil qilindi. 30 Shunday qilib, o‘n oltita kumush taglikka tayangan sakkizta romdan orqadagi devor qilindi, har bir rom ostiga qo‘yish uchun ikkitadan taglik yasaldi.

31 Muqaddas chodirning janub tomonidagi romlarni ushlab turish uchun akas yog‘ochidan beshta tamba, 32 shimol tomonidagi romlarni ushlab turish uchun ham beshta tamba, orqa tomoni — g‘arb tomonidagi romlarni ushlab turish uchun ham beshta tamba yasadilar. 33 Romlarning yarmigacha o‘rnashtirilgan o‘rtadagi tambalar Chodirning boshidan oxirigacha cho‘zildi. 34 Romlarni oltin bilan qopladilar, tambalarni ushlab turadigan oltin halqalarni romlarga birlashtirdilar*, tambalarni ham oltin bilan qopladilar.

Chodirning ichki pardasi

35 Mayin zig‘ir matosidan ichki pardani* tikdilar. Pardaga ko‘k, safsar va qirmizi iplar
bilan karublar tasvirini mahorat bilan solib, uni bezatdilar. 36 Ichki parda ushlab turilishi
uchun akas yog‘ochidan to‘rtta ustun yasadilar. Ustunlarga oltin qoplab, ularga oltin
ilgaklarni mahkamladilar. Ustunlar uchun eritilgan kumushdan to‘rtta taglik yasadilar.

Chodirning kirishidagi parda

37 Chodirga kirish joyi uchun mayin zig‘ir matosidan pardani tikdilar. Parda ustiga
ko‘k, safsar va qirmizi iplardan mahorat bilan naqsh soldilar. 38 Bu parda ushlab turilishi
uchun beshta ustun yasadilar. Ustunlarning tepasini va halqalarini oltin bilan qopladilar.
Ustunlarning beshta tagligini esa bronzadan qildilar.

37–BOB

Ahd sandig‘i va uning qopqog‘i yasaladi

1 Bazalilning ko‘rsatmasi bilan akas yog‘ochidan* Sandiq* yasadilar. Sandiqning
uzunligi ikki yarim tirsak, eni bir yarim tirsak, bo‘yi bir yarim tirsak* edi. 2 Sandiqning
ichkariyu tashqarisini toza oltin bilan qoplab, aylanasi bo‘ylab oltin gulchambar qildilar.
3 Sandiq uchun eritilgan oltindan to‘rtta halqa yasab, to‘rtala oyog‘iga mahkamladilar:
ikkita halqa bir tomonida, ikkita halqa ikkinchi tomonida edi. 4 Keyin akas yog‘ochidan
xodalar yasab, xodalarni oltin bilan qopladilar. 5 Sandiqning ikkala tomonidagi halqadan
Sandiqni ko‘tarib yurish uchun xodalarni o‘tkazdilar. 6 Toza oltindan Sandiqning
qopqog‘ini yasadilar. Qopqoqning uzunligi ikki yarim tirsak, eni bir yarim tirsak* edi. 7-
8 Shu bilan birga, oltindan zarb urib ikkita karub yasadilar*. Bitta karub qopqoqning bir
chetida, ikkinchi karub ikkinchi chetida bo‘lib, har ikkalasi qopqoq bilan bir butunni
tashkil qildi. 9 Karublarning tepaga ko‘tarilgan qanotlari qopqoqni berkitib turardi. Ular
yuzma–yuz turib, qopqoqqa qaragan edi.

Muqaddas nonlar uchun xontaxta yasaladi

10-11 Akas yog‘ochidan xontaxta* yasadilar. Uni toza oltin bilan qopladilar.
Xontaxtaning uzunligi ikki tirsak, eni bir tirsak, bo‘yi bir yarim tirsak* edi. Xontaxtaning
chetlariga aylantirib oltin gulchambar qildilar. 12 Yana xontaxtaning aylanasi bo‘ylab
to‘rt enli rom o‘rnatdilar. Bu romni naqshli hoshiya qilib bezatdilar. Uni xontaxtaning
oyoqlariga mahkamladilar. 13-15 Yana eritilgan oltindan to‘rtta halqa yasab, har birini
taxta mahkamlangan joyning yoniga — to‘rtala burchagidagi to‘rtala oyog‘iga
o‘rnashtirdilar. Akas yog‘ochidan ikkita xoda yasab, ularni oltin bilan qopladilar. Bu
xodalarni halqalardan o‘tkazib, xontaxtani ko‘tarib yurish uchun foydalanilar edi.
16 Xontaxtaga qo‘yiladigan buyumlarni — lagan, piyolalar, sharob nazr qilish uchun kosa
va ko‘zalarni toza oltindan yasadilar.

Chiroqpoya yasaladi

17 Sof oltindan zarb urib chiroqpoya* yasadilar. Butun chiroqpoyani va uning
bezaklarini bir butun qilib yasadilar. Chiroqpoyaning tagligi, poyasi va kurtakli gulga
o‘xshash shakldagi piyolalari bor edi. 18 Yana chiroqpoyaning poyasidan oltita shoxcha
chiqarildi: uchta shoxchasi bir yonidan, uchta shoxchasi ikkinchi yonidan chiqarildi.
19 Chiroqpoyaning poyasidan chiqadigan shoxchalarning har birida kurtakli bodom
guliga o‘xshash shakldagi uchta piyola bor edi. 20 Chiroqpoyaning poyasida kurtakli

bodom guliga o‘xshash shakldagi to‘rtta piyola bor edi. 21 Chiroqpoyaning poyasidan
chiqadigan shoxchalarning har juftida bu kurtaklardan uchtasi birin–ketin tizilib
turardi. 22 Chiroqpoyani shoxchalari va kurtaklari bilan bitta qilib, toza oltinning yaxlit
bo‘lagidan zarb urib yasadilar. 23 Chiroqpoya uchun yettita moychiroq yasadilar.
Moychiroqlarga qarab turishda foydalangani toza oltindan qisqichlar va patnislar
yasadilar. 24 Chiroqpoya bilan uning hamma buyumlarini ikki pud* toza oltindan
yasadilar.

Tutatqi qurbongohi yasaladi

25 Akas yog‘ochidan tutatqi qurbongohi* yasadilar. Qurbongoh to‘rtburchak bo‘lib,
uzunligi bir tirsak, eni ham bir tirsak, bo‘yi esa ikki tirsak* edi. Qurbongohning to‘rtala
burchagiga o‘zidan yo‘nib chiqarilgan bittadan shox yasadilar. 26 Qurbongohning ustini,
yon–atrofini, shoxlarini toza oltin bilan qopladilar, aylanasi bo‘ylab oltindan gulchambar
yasadilar. 27-28 Qurbongohning ikki tomonidagi gulchambarning ostiga ikkita oltin halqa
o‘rnashtirdilar. Akas yog‘ochidan ikkita xoda yasab, ularni oltin bilan qopladilar. Bu
xodalarni halqalardan o‘tkazib, qurbongohni ko‘tarib yurish uchun foydalanilar edi.

Muqaddas qiladigan moy va xushbo‘y tutatqi tayyorlanadi

29 Usta odam muqaddas qiladigan moy* va toza, xushbo‘y tutatqi tayyorladi.

38–BOB

Kuydiriladigan qurbonlik uchun qurbongoh yasaladi

1 Akas yog‘ochidan* to‘rtburchak qilib kuydiriladigan qurbonlik uchun qurbongoh*
yasadilar. Qurbongohning uzunligi besh tirsak, eni ham besh tirsak, bo‘yi uch tirsak* edi.
2 Qurbongohning to‘rtala burchagiga o‘zidan yo‘nib chiqarilgan bittadan shox yasadilar.
Qurbongoh va uning shoxlarini bronza bilan qopladilar. 3 Qurbongohning hamma
buyumlari — qozonlarni, kuraklarni, tog‘orachalarni, sanchqilarni va olovkuraklarni
bronzadan yasadilar. 4 Qurbongohga bronzadan panjara yasadilar. Panjarani
qurbongohning ichiga — to‘rt tomoniga o‘rnatilgan tokchaning ostida o‘rnatdilar,
yarmigacha yetib bordi. 5 Bronza panjaraning to‘rtala burchagiga xodalarni o‘tkazish
uchun eritilgan bronzadan to‘rtta halqa yasadilar. 6 Akas yog‘ochidan xodalar yasab,
xodalarni bronza bilan qopladilar. 7 Qurbongohni xodalar yordamida ko‘tarib yurish
uchun qurbongoh yonlaridagi halqalarga xodalarni o‘tkazib qo‘ydilar. Qurbongohning
chetlariga taxta qoqib, ichini bo‘sh qoldirdilar.

Bronza qo‘lyuvgich yasaladi

8 Uchrashuv chodiriga kiraverishda xizmat qilgan ayollar* hadya qilgan bronza
ko‘zgulardan* ular bronza qo‘lyuvgichni va uning tagligini yasadilar.

Muqaddas chodir hovlisi atrofidagi to‘siq yasaladi

9 So‘ngra Muqaddas chodirning hovlisini o‘rab tursin deb, pardadan to‘siq qildilar:
to‘sib turadigan pardalarni mayin zig‘ir matosidan tikdilar. Hovlining janub tomonidagi
pardadan qilingan to‘siqning uzunligi yuz tirsak* edi. 10 O‘sha to‘siqda yigirmata
bronzadan qilingan taglikka yigirmata ustun o‘rnatilgan edi. Shu yerdagi pardalarni
osish uchun ustunlarga kumushdan qilingan ilgaklar va halqalarni mahkamladilar.
11 Hovlining shimol tomonidagi pardadan qilingan to‘siqning uzunligi ham yuz tirsakni

tashkil qilib, uning yigirmata ustuni va bronzadan qilingan tagliklari bor edi. Uning pardalarini osish uchun ustunlariga ham kumushdan qilingan ilgaklar va halqalarni mahkamladilar. 12 Hovlining g‘arb tomonidagi pardadan qilingan to‘siqning uzunligi ellik tirsak*, uning o‘nta ustuni va tagligi bor edi. Uning pardalarini osish uchun ustunlariga ham kumushdan qilingan ilgaklar va halqalarni mahkamladilar. 13 Hovlining sharq tomoni ellik tirsak kenglikda edi. 14-15 Hovlining kirish joyi shu yer edi. Kirishning o‘ng va chap tomonidagi pardadan qilingan to‘siqlarning uzunligi o‘n besh tirsakdan* edi, har ikki tomonda uchtadan ustun va tagliklar bor edi. 16 Hovlining hamma tomonidagi to‘sib turadigan pardalarni mayin zig‘ir matosidan qildilar, 17 ustunlarning tagligini bronzadan, ilgaklari va halqalarini kumushdan qildilar. Ustunlarning tepasini kumush bilan qopladilar. Hovlining hamma ustunlarida kumush halqalar bor edi.
18 Hovliga kirish joyi uchun parda qildilar. Uni mayin zig‘ir matosidan tikdilar, ustiga ko‘k, safsar va qirmizi iplardan mahorat bilan naqsh soldilar. Bu pardaning eni yigirma tirsak*, bo‘yi hovlining to‘sib turadigan pardalari kabi, besh tirsak* edi. 19 Bu pardani to‘rtta taglikka o‘rnatilgan to‘rtta ustun ushlab turdi. Ustunlarning tagligini bronzadan, ilgaklari va halqalarini kumushdan qildilar. Ustunlarning tepasini kumush bilan qopladilar. 20 Muqaddas chodirni va pardadan qilingan to‘siqni ushlab turadigan barcha qoziqlarni ham bronzadan yasadilar.

Muqaddas chodirda foydalanilgan oltin, kumush va bronza

21-23 Egamizning Musoga bergan amriga ko‘ra, Yahudo qabilasidan Urining o‘g‘li, Xurning nabirasi Bazalil hamma ishlarni bajarib bo‘ldi. Dan qabilasidan bo‘lgan Oxisamax o‘g‘li Oxoliyov uning yonida bo‘ldi. U hunarmand bo‘lib, ijod qilar, buyumlar yasay olardi, ko‘k, safsar, qirmizi iplardan foydalanib, mayin zig‘ir matosiga naqsh solishni bilardi.

Musoning ixtiyoridagi ruhoniy Horunning o‘g‘li Itamar nazorati ostida Levi qabilasi sarf qilingan oltin, kumush va bronzaning hisobini olib borgan edi. Muqaddas ahd chodirini* yasashda ishlatilgan oltin, kumush va bronza hisobi quyidagicha edi:

Oltin

24 Chodir yasalishiga sarf qilingan oltinning jami 62,5 pud* edi. Xalq Egamizga nazr qilgan oltinning hisobi shuncha edi.

Kumush

25 Sanab chiqilgan xalqdan yig‘ilgan kumushning* jami hisoblab chiqilganda, 214 pud* bo‘ldi. 26 Bu miqdor hisoblab chiqilgan yigirma va undan yuqori yoshdagi 603.550 odamning har biriga 1,25 misqoldan* to‘g‘ri kelardi. 27 213 pud kumush eritilib, Chodirning romlari va ichki pardani ushlab turadigan ustunlar uchun 100 ta taglik qilishga ishlatildi, har bir taglik uchun 2 puddan ortiq* kumush sarf qilindi. 28 Qolgan 1 pud* kumush hovli atrofidagi ustunlar uchun ilgaklar va halqalar yasashga, ustunlarning tepasini qoplashga ishlatildi.

Bronza

29 Xalq Egamizga nazr qilgan bronzaning miqdori 151 pud* edi. 30 Quyidagi ashyolarni yasashda o‘sha bronza ishlatildi:

> Uchrashuv chodiriga kiraverishdagi ustunlar uchun tagliklarni,
> bronza qurbongoh bilan uning bronza panjarasini, uning hamma buyumlarini,

31 hovlining atrofidagi pardalarni ushlab turadigan ustunlar uchun tagliklarni,
hovliga kiraverishdagi parda uchun tagliklarni,
Muqaddas chodir bilan atrofdagi pardadan qilingan to‘siqni ushlab turadigan
barcha qoziqni.

39–BOB

Ruhoniylik liboslari tikiladi

1 Ular ko‘k, safsar va qirmizi iplardan Muqaddas xonada xizmat qilganda kiyish uchun ruhoniylarga liboslarni ajoyib qilib tikdilar. Horunga muqaddas ruhoniylik liboslari tikishdi. Hammasini Egamiz Musoga amr etganday qildilar.

Oliy ruhoniy uchun efod

2 Ular efodni* mayin zig‘ir matosidan tikib, ustiga ko‘k, safsar, qirmizi va zar iplardan naqsh soldilar. 3 Oltinni yupqa qilib yoyib, ingichka–ingichka qilib kesib, zar ip qilishdi. Ular o‘z mahoratlarini ishga solib ko‘k, safsar, qirmizi iplardan naqsh solingan mayin zig‘ir matosini bu zar ip bilan bezatdilar. 4 Efodning old va orqa qismlarini bir–biriga bog‘lash uchun ikkita yelka bog‘ichini qilib, ularni old va orqa qismlarining ustki chetiga tikdilar. 5 Kamar yasab, uni efodga bog‘ladilar. Kamarni ham mayin zig‘ir matosidan qildilar. Unga ko‘k, safsar, qirmizi va zar iplardan mahorat bilan naqsh soldilar. Hammasini Egamiz Musoga amr etganday qildilar.

6 Keyin muhr o‘yganday qilib, Isroil o‘g‘illarining ismini ikkita aqiq toshga o‘yib yozdilar. Yozilgan toshlarni oltindan qilingan naqshli uyalar ichiga qo‘yib, 7 Isroilning o‘n ikki qabilasini eslatib turish uchun efodning yelka bog‘ichlariga o‘rnashtirdilar. Hammasini Egamiz Musoga amr etganday qildilar.

Oliy ruhoniy uchun ko‘krakpech

8 Ular ko‘krakpechni* yasadilar. Ko‘krakpechni, efod singari, mayin zig‘ir matosidan qilib, ko‘k, safsar, qirmizi va zar iplardan unga mahorat bilan naqsh soldilar.
9 Ko‘krakpechni to‘rtburchak xalta shaklida, ikki buklangan, bo‘yi bir qarich, eniga ham bir qarich qilib yasadilar. 10 Ko‘krakpechga to‘rt qator toshni* to‘g‘ri qilib terdilar: qizil yoqut, xrizolit va zumrad toshlarni birinchi qatorga terdilar. 11 Ikkinchi qatorga firuza, zangori yoqut va olmosni terdilar. 12 Uchinchi qatorga lojuvard, agat va ametist toshlarni terdilar. 13 To‘rtinchi qatorga topaz, aqiq va yashma toshlarni terdilar. Hamma toshlarni oltindan qilingan naqshli uyalarga o‘rnashtirdilar. 14 Bu o‘n ikki tosh Isroilning o‘n ikki qabilasini eslatib turardi. Muhr o‘yganday qilib, Isroilning o‘n ikki o‘g‘lidan har birining ismini bu toshlarning har biriga o‘yib yozdilar.

15 Ular ko‘krakpechni efodga bog‘lash uchun toza oltindan ipga o‘xshatib eshilgan ikkita zanjir yasadilar. 16 Yana naqshli ikkita oltin uya va ikkita oltin halqa yasab, ikkala halqani ko‘krakpechning ustki burchaklariga mahkamladilar. 17 Ikkala oltin zanjirning bir uchini ko‘krakpechdagi halqalarga bog‘lab, 18 ikkinchi uchini naqshli oltin uyalarga mahkamladilar. Uyalarni efodning old tomonidagi yelka bog‘ichlariga o‘rnashtirdilar. 19-20 Yana oltindan to‘rtta halqa yasadilar. Ikkitasini ko‘krakpechning ostki burchaklariga — efodga yaqin bo‘lgan ichki qirg‘og‘iga mahkamladilar. Ikkitasini efodning old tomoniga, ikkala yelka bog‘ichining pastiga — naqshli kamardan yuqoriga mahkamladilar. 21 Ko‘krakpech efodning naqshli kamaridan yuqorida bo‘lsin, efoddan

osilib turmasin deb, ko‘krakpechni halqalari yordamida efodning halqalariga ko‘k bog‘ich bilan mahkamladilar. Hammasini Egamiz Musoga amr etganday qildilar.

Boshqa ruhoniylik liboslari

22 Efodning ridosini* ko‘k iplardan to‘qilgan matodan tikdilar. 23 Ridoning o‘rtasidan
bosh sig‘adigan teshik qildilar. Rido yirtilib ketmasligi uchun teshikning chetini
to‘qidilar. 24-26 Rido etagining uchiga aylanasi bo‘ylab anor* shaklini va
qo‘ng‘iroqchalarni birin–ketin qilib bittama–bitta osib chiqdilar. Anor shakli yigirilgan
ko‘k, safsar va qirmizi iplardan qilingan edi. Qo‘ng‘iroqchalar toza oltindan qilingan
bo‘lib, anor shakli oralariga osilgan edi. Horun oliy ruhoniy bo‘lib xizmat qilganda, u shu
ridoni kiyishi kerak edi. Hammasini Egamiz Musoga amr etganday qildilar.
27 Horun bilan uning o‘g‘illariga mayin zig‘ir matosidan ko‘ylaklarni, 28 sallani,
peshanabog‘larni va ishtonlarni qildilar. 29 Belbog‘ini mayin zig‘ir matosidan to‘qib,
ustiga ko‘k, safsar va qirmizi iplardan mahorat bilan naqsh soldilar. Hammasini Egamiz
Musoga amr etganday qildilar.
30 Toza oltindan lavhani — muqaddaslik ramzini yasadilar. Lavhaning yuzasiga muhr
o‘yganday, “Egamizga bag‘ishlangan” deb o‘yib yozdilar. 31 Lavhani sallaga mahkamlash
uchun ko‘k bog‘ichni lavhaga bog‘lab qo‘ydilar. Hammasini Egamiz Musoga amr
etganday qildilar.

Ish nihoyasiga yetadi

32 Shunday qilib, Uchrashuv chodiri — Muqaddas chodir yasalishiga oid hamma
ishlar nihoyasiga yetdi. Isroil xalqi hammasini Egamiz Musoga amr etganday qildilar.
33 Keyin Musoning oldiga quyidagilardan iborat Muqaddas chodirni olib keldilar:

Chodirning ichki qavatini va uning hamma qismlarini — ilgaklarini, romlarini,
tambalarini, ustunlari va tagliklarini,
34 qizilga bo‘yalgan qo‘chqor terisidan yopinchiqni, yumshoq teridan* yopinchiq
va Eng muqaddas xonani to‘sib turadigan ichki pardani,
35 Ahd sandig‘ini*, uning xodalari va qopqog‘ini,
36 xontaxtani, uning hamma buyumlarini va unga qo‘yiladigan muqaddas
nonlarni*,
37 toza oltindan qilingan chiroqpoya, unga o‘rnatilgan moychiroqlarni, uning
hamma buyumlarini va moychiroqlar uchun zaytun moyini,
38 oltin tutatqi qurbongohini,
muqaddas qiladigan moy* va xushbo‘y tutatqini,
Chodirga kiraverishdagi pardani,
39 bronza qurbongohni, uning bronza panjarasini, xodalari va hamma
buyumlarini,
qo‘lyuvgichni va uning tagligini,
40 hovlini to‘sib turadigan pardalarni, pardalarni ushlab turadigan ustunlarni,
ustunlarning tagliklarini va hovliga kiraverishdagi pardani,
Chodir va hovli uchun arqonlarni, qoziqlarni,
Muqaddas chodir — Uchrashuv chodirida foydalanadigan hamma ashyolarni,
41 Ruhoniy Horun va uning o‘g‘illari Muqaddas xonada xizmat qilganda kiyadigan,
ajoyib qilib tikilgan muqaddas liboslarni.

42 Xullas, Isroil xalqi hammasini Egamiz Musoga amr etganday qildilar. 43 Muso
qilingan hamma ishlarni koʻzdan kechirdi, Isroil xalqi bu ishlarni Egamizning amri
boʻyicha qilganlarini koʻrib, Muso ularni duo qildi.

40–BOB

Muqaddas chodir oʻrnatilib, bagʻishlanadi

1 Egamiz Musoga aytdi: 2 “Birinchi oyning* birinchi kuni Uchrashuv chodirini —
Muqaddas chodirni oʻrnattir. 3 Soʻng Ahd sandigʻi* chodirga olib kirilsin, Sandiqni ichki
parda* bilan toʻsdir. 4 Keyin xontaxta olib kirilsin. Xontaxtaga tegishli ashyolarni uning
ustiga joylashtir. Chiroqpoya ham olib kirilsin*, chiroqpoyaga moychiroqlarni
oʻrnashtir. 5 Oltin tutatqi qurbongohini Ahd sandigʻi oldiga qoʻydir*. Muqaddas chodirga
kiraverishda pardani osdir. 6 Qurbonlik kuydiriladigan qurbongohni Uchrashuv
chodiriga — Muqaddas chodirga kiraverishda oʻrnashtir. 7 Qoʻlyuvgichni Uchrashuv
chodiri bilan qurbongoh oʻrtasiga oʻrnashtirib, ichiga suv quydir. 8 Chodir va
qurbongohning atrofiga pardadan qilingan toʻsiqni oʻrnashtirib, hovliga kiraverishdagi
pardani osdir.

9 Keyin muqaddas qiladigan moyni* olib, Chodirga va uning hamma ashyolariga
surtib chiqib, Menga bagʻishla. Shunda Chodir muqaddas boʻladi. 10 Qurbonlik
kuydiriladigan qurbongohga va uning hamma buyumlariga ham moy surtib, Menga
bagʻishla. Shunda qurbongoh gʻoyat muqaddas boʻladi. 11 Qoʻlyuvgichga va uning
tagligiga ham moy surtib, Menga bagʻishla.

12 Horun bilan oʻgʻillarini Uchrashuv chodirining kiraverishiga olib kelib,
hammalarini yuvintir. 13 Soʻng Horun ruhoniy boʻlib xizmat qilishi uchun uni Menga
bagʻishla: unga muqaddas ruhoniylik liboslarini kiydirib, moy surt. 14 Shundan keyin
Horunning oʻgʻillarini ham olib kelib, ularga koʻylak kiygiz. 15 Otasiga moy
surtganingday, ularga ham moy surt, toki ular ruhoniy boʻlib Menga xizmat qilishsin.
Horun va uning oʻgʻillariga moy surtish bilan ularning oʻzlari ham, nasllari ham avlodlar
osha Menga ruhoniy boʻlib xizmat qilishlari uchun sen ularga ijozat bergan boʻlasan.”

16 Muso Egamiz amr etgan hamma ishlarni bajarib boʻldi. 17-18 Ikkinchi yilning
birinchi oyida*, oyning birinchi kuni Muso Muqaddas chodirni oʻrnattirdi: u hamma
tagliklarni joyiga qoʻydirdi, romlarni oʻrnashtirib, tambalarni joylashtirdi, ustunlarni
oʻrnashtirdi. 19 Soʻngra Chodirni tutib turadigan romlar ustiga choyshablar va
qoplamalarni tashlatdi. Egamiz amr etganlarning hammasini Muso bajardi.

20 Keyin ahdning amr va qonunlari yozilgan ikkita tosh lavhani* olib, Sandiqqa solib
qoʻydi. Xodalarni Sandiq halqasidan oʻtkazgach, Sandiqning qopqogʻini Sandiq ustiga
oʻrnashtirdi. 21 Sandiqni Muqaddas chodirga olib kirdi. Ichki pardani osib, Ahd sandigʻini
toʻsdirib qoʻydi. Egamiz amr etganlarning hammasini Muso bajardi.

22 Uchrashuv chodiriga — chodirning shimol tomoniga, ichki pardaning tashqarisiga
xontaxtani qoʻydirdi. 23 Xontaxta ustiga — Egamizning huzuriga muqaddas nonlarni*
qoʻydi. Egamiz amr etganlarning hammasini Muso bajardi.

24 Uchrashuv chodiriga — xontaxtaning roʻparasiga, Chodirning janub tomoniga
chiroqpoyani qoʻydirdi. 25 Egamizning huzuriga — chiroqpoyaga moychiroqlarni
oʻrnashtirdi. Egamiz amr etganlarning hammasini Muso bajardi.

26 Uchrashuv chodiridagi ichki pardaning tashqarisiga oltin tutatqi qurbongohini

qo‘ydirdi. 27 Qurbongohda xushbo‘y tutatqi tutattirdi. Egamiz amr etganlarning
hammasini Muso bajardi.
28 Muqaddas chodirga kiraverishda pardani osdirdi. 29 Uchrashuv chodiriga —
Muqaddas chodirga kiraverishda qurbonlik kuydiriladigan qurbongohni o‘rnashtirdi.
So‘ng qurbonlik bilan don nazri* keltirib, qurbongohda kuydirdi. Egamiz amr
etganlarning hammasini Muso bajardi.
30 Uchrashuv chodiri bilan qurbongoh o‘rtasiga qo‘lyuvgichni o‘rnashtirib, yuvinish
uchun ichiga suv quydirdi. 31-32 Muso, Horun va Horunning o‘g‘illari Uchrashuv chodiriga
kirganlarida yoki qurbongohda nazrlarni kuydirganlarida, qo‘lyuvgichdagi suv bilan
oyoq–qo‘llarini yuvishar edi. Egamiz amr etganlarning hammasini Muso bajardi.
33 So‘ngra Muso Chodir bilan qurbongohning atrofiga pardadan qilingan to‘siqni
o‘rnashtirib, hovliga kiraverishda pardani osdirdi. Shunday qilib, Muso ishini tugatdi.

Bulut va Egamizning ulug‘vorligi

34-35 Keyin Uchrashuv chodirini — Muqaddas chodirni bulut qopladi, Egamiz
ulug‘vorligi bilan zohir bo‘lib Chodirni to‘ldirdi. Shuning uchun Muso Chodirga kira
olmadi. 36 Chodirdan bulut ko‘tarilganda, Isroil xalqi har bir to‘xtagan joyidan yo‘lga
chiqib sayohatini davom ettirardi. 37 Bulut ko‘tarilmasdan, to bulut ko‘tariladigan kun
kelmaguncha, ular yo‘lga chiqishmasdi. 38 Shunday qilib, Isroil xalqi butun sayohatlari
davomida kunduzi Muqaddas chodir ustida Egamiz zohir bo‘ladigan bulutni, kechasi
Chodir tepasidagi bulut ichida yonayotgan alangani ko‘rar edilar.

IZOHLAR

1:1-4 *Isroil* — Yoqubning yana bir ismi (Ibtido 32:27-28 ga qarang).

1:5 *yetmish* — Ibtido 46:8-27 oyatlarga va Ibtido 46:27 izohiga qarang.

1:8 *yangi fir'avn* — taxtga o'tirgan yangi shoh sulolasi nazarda tutilgan bo'lishi mumkin.

1:11 *...Pitom va Ramzes...shaharlar...* — Pitom shahri Muqaddas Kitobda faqat bir marta tilga olingan. Bu shaharning aynan qayerda joylashgani ma'lum emas, biroq u Misr shimolidagi Nil deltasining yerlarida joylashgan bo'lishi mumkin. Ramzes shahri keyinchalik o'sha joyda yashagan fir'avn Ramzes II nomi bilan atalgan mashhur shaharga ishora. Bu shahar ham Nil deltasining yerlarida joylashgan edi, lekin uning aynan qayerda joylashgani ma'lum emas.

2:4 *opa* — ya'ni Maryam (Sahroda 26:59 ga qarang).

2:10 *Muso* — misrcha ism bo'lib, *tug'ilgan* degan ma'noni anglatadi. Bu ism ibroniychadagi *chiqarib olmoq* so'ziga ohangdosh. Musoga qo'yilgan bu ism Xudoning Isroil xalqini Muso orqali Misrdan chiqarib olishi va Qizil dengizdan olib o'tishi haqidagi ilohiy rejasini ayon qiladi (13:17-14:31 ga va Ishayo 63:11-12 ga qarang). Haqiqatdan, Muso Xudo tomonidan tanlangan xaloskor edi.

2:15 *Midiyon yurti* — Misrdan sharqda joylashgan. Bu oyatda tilga olingan Midiyon yurtining aynan qayerda joylashgani ma'lum emas. Bu yurt Sinay yarim orolida yo O'lik dengizning janubidagi yerlarda yoki hozirgi Aqaba qo'ltig'ining sharq tomonida joylashgan bo'lsa kerak.

2:18 *Yatro* — ibroniycha matnda *Ruvel*, Yatroning yana bir ismi (3:1 ga qarang).

2:22 *Gershom* — bu ism ibroniychadagi *u yerda musofir* so'ziga ohangdosh.

2:24 *Ibrohim, Is'hoq, Yoqub bilan ahd qilib bergan va'dasi...* — Ibtido 12:1-3, 26:2-5, 28:13-15 ga qarang.

3:1 *Sinay* — ibroniycha matnda *Xorev*, Sinay tog'ining yana bir nomi.

3:8 *sut va asal oqib yotgan yurt* — nihoyatda hosildor yerni bildiruvchi ibora. Mo'l–ko'l sut — mol uchun ko'm–ko'k yaylovlarning ko'pligini bildiradi. Asal — xurmodan olinadigan quyuq, shirin murabboga ishora bo'lishi mumkin. Murabboning mo'lligi yaxshi hosil beradigan yerni bildiradi.

3:13 *"Kim U?"* — ibroniycha matndan so'zma–so'z tarjimasi *"Uning ismi nima?"* Yahudiylarning tasavvuriga ko'ra odamning ismi uning xarakteri va xulq–atvorini ifodalaydi. Bu oyatdagi savol faqatgina Xudoning ismini bilish uchun emas, balki Isroil xalqi va Muso o'z ota–bobolarining Xudosini yanada yaxshiroq bilishlari uchundir. Muso o'ziga berilgan kuch va hokimiyatga uncha ishonmay: "Men kim bo'libman...?!" deb so'ragan (shu bobning 11–oyatiga qarang). Isroil xalqi ham Musodan "Ota–bobolarimizning Xudosi Kim?" deb so'rashini Muso bilardi. Yana shu bobning 14–oyati izohiga qarang.

3:14 *Men har doim bor bo'lgan Xudoman...* — ibroniycha matndan so'zma–so'z tarjimasi *Men bor bo'lgan Menman...*. Musoning savoliga javob sifatida Xudo O'zini barcha hodisalar ustidan cheksiz kuch va hokimiyatga ega bo'lgan — har doim bor bo'lgan

Xudo sifatida ayon qildi (yana shu bobning 15–oyatiga va o‘sha oyatning izohiga qarang).

3:15 *Egangiz* — ibroniycha matnda *YHVH* (*Yahveh* deb talaffuz qilingan bo‘lishi mumkin), Xudoning ismi. *YHVH* ibroniychadagi *men borman* fe’liga ohangdosh, bu fe’l shu bobning 14–oyatida uch marta ishlatilgan. Ko‘pchilik olimlar *YHVH* ibroniycha *bor bo‘lmoq* fe’lining ilk shakli bo‘lishi mumkin, deb tushunadilar. Ushbu tarjimada *YHVH* so‘zi *Egam, Egamiz, Egang, Egangiz, Egasi* deb tarjima qilingan (to‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi XUDONING NOMLARI iborasi ostida berilgan EGAM, EGAMIZ… so‘ziga qarang).

4:6 *…yara toshib…* — bu ibora ibroniychada har xil teri kasalliklariga nisbatan ishlatilgan so‘zning tarjimasidir. Odatda bu ibora moxov kasalligiga ishora deb tushuniladi.

4:20 *Xudo, ol, deb tayinlagan tayoq* — yoki *Xudoning qudratiga ega bo‘lgan tayoq*.

4:24 *…Musoning oldiga…* — yoki *…Musoning o‘g‘li oldiga…*. Ibroniycha matnda *…uning oldiga…*, bu o‘rinda Muso yoki uning o‘g‘li nazarda tutilgan (yana shu bobning 25–oyatiga va o‘sha oyatning oxirgi izohiga qarang).

4:24 *…sal bo‘lmasa uni o‘ldiray dedi* — u birdaniga Xudo tomonidan yuborilgan jiddiy xastalikka yo‘liqqan bo‘lishi mumkin.

4:25 *xotini Zippura* — 2:16-21 ga qarang.

4:25 *tosh pichoq* — bu pichoq qoyatoshdan yasalgan edi. Qoyatoshni yo‘nib, uning uchini o‘tkir qilish mumkin.

4:25 *…Musoning oyoqlariga…* — yoki *…o‘g‘lining oyoqlariga…*. Ibroniycha matnda *…uning oyoqlariga…*. Bu o‘rinda Musoning oyoqlari yoki o‘g‘lining oyoqlari nazarda tutilgan. Bu oyatdagi *oyoq* so‘zi ko‘chma ma’noda ishlatilgan bo‘lib, *jinsiy a’zoni* bildirishi mumkin. Olimlar bu oyatda va mazkur bobning 24–oyatida Muso yoki uning o‘g‘li haqida gap ketayotgani to‘g‘risida bir fikrga kela olmaydilar. Agar Muso haqida gap ketayotgan bo‘lsa, demak, Muso o‘g‘lini sunnat qilmagani uchun Xudoning qahriga uchraganini Zippura tushunib, Musoni xalos qilish uchun o‘g‘lini sunnat qilgan. Bu hodisa Xudoning o‘z xalqi bilan tuzgan ahdining belgisi bo‘lgan sunnatning qanchalik muhimligini ko‘rsatadi (yana Ibtido 17:9-14 ga qarang).

4:27 *Xudoning muqaddas tog‘i* — Sinay tog‘iga ishora.

5:5 *qarollar* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *yerli xalq*, ibroniy qarollariga ishora.

5:9 *…behuda gaplarga quloq solishmasin* — ya’ni Muso va Horun Isroil xalqiga aytgan gaplarga (4:29-31 ga qarang).

6:3 *Ibrohimga, Is’hoqqa va Yoqubga Men Qodir Xudo bo‘lib O‘zimni zohir qildim* — Ibtido 17:1-8, 28:1-5, 35:11-13 ga qarang.

6:3 *Ammo ularga Men, ularning Egasi deb tanilmagan edim* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *Ammo YHVH ismim bilan ularga tanilmagan edim* (3:15 izohiga qarang). Yahudiylarning tasavvuriga ko‘ra odamning ismi uning xarakteri va xulq–atvorini ifodalaydi. Ibrohim, Is’hoq va Yoqub Xudoning *YHVH* ismini bilgan bo‘lsalar

ham, Xudoning xarakteri va fazilatlari haqidagi ularning bilimi o‘zlarining hayotiy tajribasi bilan cheklangan edi. Xudo O‘zini Ibrohim, Is’hoq va Yoqubga zohir qilganday, endi O‘zini Isroil xalqiga ham tanitmoqchi, lekin bu safar U O‘z xalqiga xarakteri va fazilatlarining boshqa tomonlarini ayon qilmoqchi (shu bobning 1–oyatiga qarang). Ularning ota–bobolari bilan tuzgan ahdini amalga oshiradigan Xudo ekanligini bildirib, O‘zining buyuk sadoqatini ko‘rsatmoqchi (shu bobning 4-5–oyatlariga qarang). Xudo Isroil xalqini Misrdagi qullikdan ozod qilib, ularni Ibrohim, Is’hoq va Yoqubga ont ichib, va’da qilgan yurtga olib boradi (shu bobning 6-8–oyatlariga qarang).

6:4 *...ular bilan ahd qildim* — Ibtido 12:1-3, 26:2-5, 28:13-15 ga qarang.

6:14 *Yoqub* — ibroniycha matnda *Isroil*, Yoqubning yana bir ismi (Ibtido 32:27-28 ga qarang).

8:21 *so‘nalar* — bu o‘rindagi ibroniycha so‘z oddiy pashsha yoki pashshasimon chaqadigan hasharotni bildirishi mumkin.

8:22 *Go‘shen yerlari* — Nil deltasining sharqidagi hosildor yerlar (Ibtido 45:10, 47:6 ga qarang).

8:23 *Men O‘z xalqim bilan sening xalqingni ayirib qo‘yaman* — qadimiy yunoncha va lotincha tarjimalardan (yana 9:4 ga qarang). Ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *O‘z xalqim va sening xalqing orasiga najot qo‘yaman*. Bu gapni *Men O‘zimning xalqimni xalos etaman–u, sening xalqingni esa xalos qilmayman* deb tarjima qilsa ham bo‘ladi.

8:26 *Egamiz Xudoga hayvonlarni qurbonlik qilsak...bizni toshbo‘ron qilmaydilarmi?!* — Misrliklar ba’zi hayvonlarni muqaddas deb bilganlar va o‘sha hayvonlarning tasvirlariga sig‘inganlar. Bordi–yu, Misrliklar Isroil xalqining o‘sha hayvonlarni Xudoga qurbonlik qilganini ko‘rsalar, nihoyatda g‘azablangan bo‘lar edilar. Muso buni bilar edi.

9:32 *...bug‘doy kechki bo‘lgani uchun...* — ibroniycha matnda ikki xil bug‘doy haqida so‘z yuritilgan. Bu kechki bug‘doyning o‘rimi arpa va zig‘irpoyaning o‘rimidan taxminan 1 oy keyin — mart oyining oxirida yoki aprel oyining boshida boshlanar edi (shu bobning 31–oyatiga qarang).

10:4 *chigirtkalar* — ba’zan to‘da–to‘da bo‘lib kelib, dalalardagi hosilga katta zarar yetkazadigan hasharot.

10:19 *Qizil dengiz* — ibroniycha matnda *Yom–Suf*, ma’nosi *Qamish dengizi*. Bu oyatdagi mana shu nom hozirgi Suets qo‘ltig‘iga (ya’ni Qizil dengizning shimoli–g‘arbidagi qo‘ltiqqa) ishora qiladi.

11:1 *Egamiz Musoga aytgandi...* — 3:20-22, 4:21-23 ga qarang.

12:2 *Bu oy...yilning birinchi oyi bo‘ladi* — ibroniy kalendarining Abib oyi nazarda tutilgan (Abib oyi Nison oyi deb ham ataladi). Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan martning o‘rtasidan boshlanadi.

12:7 *kesaki* — eshik o‘rnatilgan chorcho‘p.

12:14 *Bu kun* — birinchi oyning o‘n beshinchi kuniga ishora. Shu kuni Xamirturushsiz non bayrami boshlanar edi. Bu bayram o‘sha oyning o‘n to‘rtinchi kunida o‘tkaziladigan Fisih ziyofatidan keyin alohida nishonlanardi (Levilar 23:5-6, Ezra 6:19-22, Hizqiyol 45:21 ga qarang).

12:18 *Birinchi oy* — 12:2 izohiga qarang.

12:21 *…qo‘zi yoki uloqcha tanlab olib, Fisih ziyofatiga qurbonlik qilinglar* — shu bobning 3-6, 8-11–oyatlarida batafsil berilgan ko‘rsatmalarga qarang.

12:22 *issop o‘ti* — bu o‘rindagi ibroniycha so‘z mayda ko‘k gulli, barglari muattar hidli o‘simlikni bildiradi. Bu o‘simlikning barglari mayda tuk bilan qoplangani uchun uni cho‘tka sifatida ishlatsa ham bo‘lar edi.

12:37 *Suxot* — Ramzesdan qariyb 50 kilometr janubi–sharqda joylashgan.

13:3-4 *Abib oyi* — ibroniy kalendarining birinchi oyi (Abib oyi Nison oyi deb ham ataladi). Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan martning o‘rtasidan boshlanadi.

13:5 *sut va asal oqib yotgan o‘sha yurt* — 3:8 izohiga qarang.

13:13 *eshak* — asosiy transport vositasi bo‘lib xizmat qilgani uchun muhim bir hayvon edi. Eshak *harom* hisoblangani bois (Levilar 11:1-8 ga qarang), uni Xudoga qurbonlik qilib bo‘lmas edi, shuning uchun eshakning tug‘ilgan birinchi erkak bolasini qaytarib sotib olish kerak edi. “Halol” hayvonlarning to‘ng‘ich erkak bolasi esa qurbonlik qilinar edi (Sahroda 18:15-17 ga qarang).

13:13 *…hamma to‘ng‘ich o‘g‘illarni ham qaytarib sotib olishingiz lozim* — bu amr ruhoniylarga kumush to‘lash orqali amalga oshirilardi (Sahroda 18:15-16 ga qarang).

13:17 *Filist xalqining yurti orqali o‘tadigan yo‘l* — Nil deltasidan Kan’on yurtiga boradigan eng qisqa yo‘l. Bu yo‘l O‘rta yer dengizining qirg‘og‘i bo‘ylab borar edi.

13:18 *Qizil dengiz* — ibroniycha matnda *Yom–Suf*, ma’nosi *Qamish dengizi*. Bu oyatdagi mana shu nom ostida hozirgi Suets qo‘ltig‘i (ya’ni Qizil dengizning shimoli–g‘arbidagi qo‘ltiq) yoki Suets qo‘ltig‘i va O‘rta yer dengizi oralig‘ida joylashgan ko‘llardan biri nazarda tutilgan. 14:10-31 dagi hodisalarning tafsilotiga ko‘ra, bu dengiz kattaligidan Isroil xalqiga to‘siq bo‘lgan, chuqurligidan Misr lashkari cho‘kib ketgan.

13:19 *Yusuf…degan edi* — Ibtido 50:24-25 ga qarang.

14:2 *Qizil dengiz* — ibroniycha matnda *dengiz*. 13:18 izohiga qarang.

14:25 *…g‘ildiraklari botib qoldi* — qadimiy yunoncha va suryoniycha tarjimalardan. Ibroniycha matnda *…g‘ildiraklarini chiqarib yubordi*.

15:2 *…kuch–qudratimdir* — yoki *…qudratim, shukrona qo‘shig‘imdir*.

15:3 *…U jangchidir, U Egamizdir* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *…YHVH jangchidir, YHVH Uning ismidir*. Endi Isroil xalqi o‘z ko‘zi bilan Xudoning qilgan ishlarini ko‘rib, Uning kimligini to‘liqroq tushunadigan bo‘ldi. Xudo O‘z xalqi Isroil uchun kurashadigan kuchli jangchidir (14:14, 25 ga qarang). Yana 3:13, 14, 15 izohlariga va 6:3 ning ikkinchi izohiga qarang.

15:4 *Qizil dengiz* — ibroniycha matnda *Yom–Suf*, ma’nosi *Qamish dengizi* (shu bobning 22–oyatida ham bor). 13:18 izohiga qarang.

15:13 *Muqaddas makoning* — Kan’on yurtida joylashgan Quddusdagi Sion tog‘i nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin (yana shu bobning 17–oyatiga qarang). O‘sha yerda keyinchalik Ma’bad qurilgan edi. Ma’bad yana “Xudoning uyi” deb atalar edi. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi SION so‘ziga qarang.

15:17 *…O‘z tog‘ingga…muqaddas maskaningga…* — shu bobning 13–oyati izohiga qarang.

15:23 *Maro* — ibroniychadagi ma’nosi *taxir*.

16:1 *…bir oy o‘tgach…* — ibroniycha matnda *…ikkinchi oyning o‘n beshinchi kuni…*, ibroniy kalendarining Ziv oyi nazarda tutilgan. Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan aprelning o‘rtasidan boshlanadi. Isroil xalqi bundan bir oy oldin, ibroniy kalendarining birinchi oyi o‘n to‘rtinchi kuni Misrdan chiqqan edi (12:2-13 oyatlarga va 12:2 izohiga qarang).

16:1 *Sin sahrosi* — Sinay yarim orolidagi bu sahroning aynan qayerda joylashgani ma’lum emas.

16:4 *Non* — ibroniychada *non* so‘zi umuman yegulikka nisbatan ham ishlatiladi. Xudo Isroil xalqiga osmondan go‘sht va keyinchalik “manna” deb nomlangan yegulik yetkazib beradi (shu bobning 6-8, 13-15, 31–oyatlariga qarang).

16:5 *oltinchi kuni* — Isroil xalqi dam oladigan Shabbat kunidan oldingi juma kuni nazarda tutilgan (shu bobning 29-30–oyatlariga qarang). Shabbat dam olish kuni sifatida keyinchalik Muso orqali berilgan qonunlar majmuasiga kiritilgan edi (20:8-11, 31:12-17 ga qarang).

16:16 *bir omir* — narsalarni o‘lchash uchun ishlatilgan kichkina bir idish. Bu idishning hajmi taxminan 2 litr edi (shu bobning 36–oyatiga va o‘sha oyatning izohiga qarang). Shu bobning 18, 22, 32, 33–oyatlarida ham bor.

16:23 *…Muso ularga aytdi…* — oltinchi kuni odamlar har kungidan ikki barobar ko‘proq manna yig‘ishlari kerakligidan oqsoqollar xabardor edilar (shu bobning 5–oyatiga qarang). Endi Muso ularga nima uchun bunday qilishlari kerakligini tushuntirib beryapti.

16:31 *manna* — bu nom ibroniychadagi *Bu nima?* so‘ziga ohangdosh (shu bobning 15–oyatiga qarang).

16:33 *…Egamizning huzuriga qo‘y…* — Muqaddas chodirning Eng muqaddas xonasidagi Ahd sandig‘iga ishora (shu bobning 34–oyatiga qarang). Bu kelajakda bajarilishi kerak bo‘lgan amrdir, chunki o‘sha paytda Muqaddas chodir hali yasalmagan edi (25:10-22, 26:1-37 ga qarang).

16:34 *Ahd sandig‘i* — ibroniycha matnda *Guvohlik*, Ahd sandig‘ining yana bir nomi. Ibroniycha matndagi *guvohlik* so‘zi o‘nta amr yozilgan ikkita tosh lavhaga ishora qiladi. Ikkala tosh lavha Sandiqning ichida saqlanib, Xudo va Uning xalqi o‘rtasida tuzilgan ahdning dalili, ya’ni toshga bitilgan guvohlik bo‘lib xizmat qilardi.

16:35 *Isroil xalqi keyingi qirq yil davomida…manna tanovul qildilar* — Yoshua 5:12 ga qarang.

16:36 *to‘rt kosa* — ibroniycha matnda *efaning o‘ndan bir qismi*, taxminan 2 litrga to‘g‘ri keladi.

17:1 *…bir joydan boshqa joyga ko‘chib yurib…* — Sahroda 33:12-14 ga qarang.

17:1 *Sin sahrosi* — 16:1 ning ikkinchi izohiga qarang.

17:1 *Rafidim* — Isroil xalqi Sinay tog‘iga yetib borishidan oldin oxirgi to‘xtagan joyi.

Rafidimning qayerda joylashgani aniq ma’lum emas.

17:6 *Sinay tog‘i* — ibroniycha matnda *Xorev tog‘i*, Sinay tog‘ining yana bir nomi.

17:7 *…Massax…Mariva…* — ibroniychada Massax nomining ma’nosi — *sinov*, Mariva nomining ma’nosi — *janjal*.

17:9 *Xudo, ol, deb tayinlagan tayoq* — yoki *Xudoning qudratiga ega bo‘lgan tayoq*.

17:15 *“Egam bayrog‘imdir”* — bu yerdagi “bayroq” so‘zi ostida urush vaqtida jangchilarni ruhlantirgan lashkar ramzi nazarda tutilgan. Muso qurbongohga “Egam bayrog‘imdir” degan nom qo‘yib, shu orqali Isroil xalqiga jang qilish uchun kuchni va g‘alabani yolg‘iz Egamiz bera olishini eslatmoqchi. Muso “bayroq”, deb jang davomida ko‘tarib turgan hassasini nazarda tutgan bo‘lishi mumkin (shu bobning 9–oyatiga qarang). Musoning hassasi Xudoning qudrati va Isroil xalqiga bergan yordamining ramzi bo‘lib xizmat qilardi.

17:16 *“Omoleklar…Egamiz doimo ularga qarshi urush qiladi”…* — yoki *“Egamizning bayrog‘ini baland tutinglar! Egamiz Omolek xalqiga qarshi to abad urushni davom ettiradi”….*

18:2 *Muso xotinini otasi yoniga jo‘natib yuborganda…* — bu hodisa kitobda yozilmagan, biroq 4:18-26 oyatlardagi hodisalardan keyin yuz bergan bo‘lsa kerak. Demak, shu bobning 3-4–oyatlari o‘sha hodisadan oldingi paytga — Muso ikki o‘g‘liga ism qo‘ygan vaqtga ishora qilyapti (2:22 ga qarang).

18:3 *Gershom* — 2:22 izohiga qarang.

18:4 *…meni fir’avnning qilichidan qutqardi* — 2:1-15 ga qarang.

18:4 *Eliazar* — ibroniychadagi ma’nosi *Xudoyim madadkorimdir*.

18:5 *Xudoning muqaddas tog‘i* — Sinay tog‘iga ishora.

19:1-2 *Rafidim* — 17:1 ning oxirgi izohiga qarang.

19:1-2 *uchinchi oy* — ibroniy kalendarining Shavon oyi nazarda tutilgan. Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan mayning o‘rtasidan boshlanadi. Isroil xalqi Misrdan chiqqaniga olti hafta bo‘lib, yettinchi hafta boshlangan edi (Sahroda 33:3 ga qarang).

19:10 *…xalq poklansin…* — diniy xizmatni lozim darajada bajarishga monelik qiladigan nopoklikdan tozalanish marosimi nazarda tutilgan.

19:22 *ruhoniylar* — bu o‘rinda oqsoqollar (3:18, 12:21, 18:12 ga qarang) yoki maxsus tanlangan yigitlar — to‘ng‘ich farzandlar (24:5 va Sahroda 3:11-13 ga qarang) nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin. Horunning nasli ruhoniylikka keyinroq tayinlangan edi (28-29–boblarga qarang).

20:5 *O‘sha xudolar yoki butlarga…* — ibroniycha matnda *Ularga…*, shu bobning 3, 4–oyatlarida aytib o‘tilgan xudolar va butlarga ishora.

20:6 *…ming–ming avlodlariga…* — yoki *…minginchi avlodiga…* yoxud *…minglariga….*

20:7 *…ismini suiiste’mol qilmang* — bunga Xudoning nomi bilan biror ishni qilaman, haqiqatni aytaman, deb qasam ichgandan keyin, o‘sha va’dani buzish, ontdan qaytish yoxud Xudoning nomi bilan la’natlash yoki Xudo aytganimni qilsin, deb qilingan har xil ishlar kiradi (misol uchun, Xudoning nomi bilan fol ochish yoki sehr–jodu qilish).

20:26 *…zinapoyadan chiqayotganingizda, ochiq joylaringiz ko‘rinib qoladi* — qadimgi Isroilda erkaklar kiyimining belidan pastki qismi keng edi. Isroil xalqi bilan munosabatda bo‘lgan boshqa xalqlarning ruhoniylari sajda marosimida noma’qul kiyimlar kiyishar edi. Isroil xalqining ruhoniylari esa kiygan kiyimiga alohida e’tibor berib, qurbongohda ularning yalang‘och joylari ko‘rinmasligi kerak edi (yana 28:42-43 ga qarang).

21:2 *Agar ibroniy erkak sizlarga qul bo‘lib sotilsa…* — qadimgi Isroilda odamlar qarzini to‘lash uchun ba’zan o‘zlarini qullikka sotishgan yoki oila a’zolari tomonidan qul qilib sotilganlar.

21:6 *…hakamlar huzuriga…* — yoki *…Mening huzurimga…*, ya’ni Xudo huzuriga. Bu o‘rindagi ibroniycha so‘z Xudoga, ilohiy zotlarga yoki insoniy hukmdoru hakamlarga ishora qilgan bo‘lishi mumkin. Bu o‘rinda Xudoning hokimiyati bilan ish yuritgan hakamlar nazarda tutilgan.

21:6 *kesaki* — eshik o‘rnatilgan chorcho‘p.

21:14 *…Menga atalgan qurbongohga qochib borsa…* — qurbongoh muqaddas hisoblangani uchun, qurbongohga qochib borgan odam aybi isbotlanguncha o‘lim jazosidan holi hisoblanar edi. Bu oyatdagi vaziyatda qotil odamni qasddan o‘ldirgani ma’lum bo‘lgani uchun, hatto qurbongoh ham uni haqqoniy jazodan qutqara olmasdi.

21:22 *…ayol chala tug‘ib qo‘ysa–yu…* — yoki *…ayolning homilasi tushib qolsa–yu….*

21:23-25 *…jon evaziga jon, [24] ko‘z evaziga ko‘z…[25]…lat yeyish evaziga lat yetkazish bilan javob bersin* — bu gap qonuniy asosni tashkil qilib, keltirilgan har qanday zarar uchun odil jazo berilishi kerakligini bildiradi. Demak, bu qonunni so‘zma–so‘z tushunish kerak emas. Misol uchun, matnning boshqa joylarida odamning o‘lganiga aybdor bo‘lgan kishi o‘ldirilishi yoki o‘z joni evaziga pul to‘lashi kerakligi haqida yozilgan (shu bobning 29-32–oyatlariga qarang). Shuningdek, qulining ko‘ziga urib, uni ko‘r qilib qo‘ygan yoki uning tishini sindirgan odamga jazo sifatida jismoniy jarohat yetkazilmas edi. Aksincha, o‘sha odam quliga yetkazgan jarohati uchun qulini ozodlikka chiqarishi kerak edi (shu bobning 26-27–oyatlariga qarang).

21:32 *o‘ttiz bo‘lak kumush* — ibroniycha matnda *o‘ttiz shaqal kumush*, taxminan 330 grammga to‘g‘ri keladi. Qadimgi paytlarda ma’lum vazndagi kumush bo‘laklari odatda pul birligi sifatida ishlatilgan.

21:33 *chuqur* — sardoba nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin. Sardoba — yomg‘ir suvini saqlash uchun foydalanilgan chuqurlik.

22:8 *…hakamlar huzuriga…* — yoki *…Mening huzurimga….* 21:6 ning birinchi izohiga qarang.

22:9 *…hakamlar huzuriga…Hakamlar…* — yoki *…Mening huzurimga…Men….* 21:6 ning birinchi izohiga qarang.

22:10 *…o‘g‘irlab olib ketilgan bo‘lsa, lekin guvoh bo‘lmasa…* — bu o‘rinda mol yaylovda o‘tlab yurgan paytda bosqinchilar tomonidan olib ketilgani nazarda tutilgan. Molning o‘g‘irlab ketilganiga guvoh bo‘lmasa, molga qaragan odam o‘zining aybsizligi haqida ont ichsin, bu jinoyatda u aybdor hisoblanmaydi.

22:28 *Men, Xudoyingizni…* — yoki *Hakamlaringizni….* Bu o‘rindagi ibroniycha so‘z

Xudoga, ilohiy zotlarga yoki insoniy hukmdoru hakamlarga ishora qilgan bo‘lishi mumkin.

22:29 *To‘ng‘ich o‘g‘illaringizni Menga bag‘ishlanglar* — 13:2, 11-16 va Sahroda 18:15-16 ga qarang.

23:11 *Yettinchi yili* — Levilar 25:1-7 ga qarang.

23:15 *Abib oyi* — ibroniy kalendarining birinchi oyi (Abib oyi Nison oyi deb ham ataladi). Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan martning o‘rtasidan boshlanadi.

23:15 *Abib oyining belgilangan vaqtida…Men sizlarga amr etganimday…* — 12:14-20 ga qarang.

23:16 *Chayla bayrami* — ibroniycha matnda *Yig‘ish bayrami*, Chayla bayramining yana bir nomi.

23:19 *Uloqchani onasining sutida qaynatmanglar* — Kan’ondagi xalqlar bayram marosimida bunday taomni tayyorlab, o‘z xudolaridan yaxshi hosil berishini so‘rar edilar. Shu sababdan Isroil xalqiga bunday taomni tayyorlash man etilgan bo‘lishi mumkin. Xudo Isroil xalqiga Kan’on xalqlarining odatlariga ergashishni qat’iyan taqiqlagan edi (shu bobning 32-33–oyatlariga va 34:11-16 ga qarang).

23:28 *Men Xiv, Kan’on va Xet xalqlarini…quvib yuboraman* — yoki *Men Xiv, Kan’on va Xet xalqlarini quvish uchun sizlardan oldin qovoq arilarni yuboraman*.

23:31 *Qizil dengiz* — ibroniycha matnda *Yom–Suf*, ma’nosi *Qamish dengizi*. Bu oyatdagi mana shu nom hozirgi Aqaba qo‘ltig‘iga (ya’ni Qizil dengizning shimoli–sharqidagi qo‘ltig‘iga) ishora qiladi. Aqaba qo‘ltig‘i Isroil yurtining janubi–sharqiy chegarasini tashkil qilar edi.

23:31 *O‘rta yer dengizi* — ibroniycha matnda *Filist xalqining dengizi*. O‘rta yer dengizi Isroil yurtining g‘arbiy chegarasini tashkil qilar edi.

23:31 *…sahrodan Furot daryosigacha…* — Sinay yarim orolining shimoli–sharqidagi bu sahro Isroil yurtining janubiy chegarasini, Furot daryosi esa shimoli–sharqiy chegarasini tashkil qilar edi.

24:1 *Sen Horunni…Mening huzurimga olib kel* — Xudoning bu oyatda aytgan amri shu bobning 9–oyatida amalga oshadi.

24:7 *Ahd kitobi* — Muso yozgan amrlar va qonun–qoidalar nazarda tutilgan (shu bobning 4–oyatiga qarang). 20-23–boblarda Xudo Musoga bergan amrlar va qonun–qoidalar o‘sha kitob tarkibiga kirgan.

24:12 *Toqqa…chiqib…* — shu bobning 9-11–oyatlarida yuz bergan hodisalardan keyin Muso va yonidagi odamlar tog‘dan tushgan edilar. Shu bois, bu oyatda Xudo Musoga qaytadan toqqa chiqish haqida amr bergan edi.

25:5 *yumshoq teri* — yuqori sifatli, oshlangan teri nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin.

25:5 *akas yog‘ochi* — quruq joylarda o‘sadigan akas daraxtining yog‘ochi qattiq, chidamli va yengil bo‘ladi.

25:6 *muqaddas qiladigan moy* — zaytun moyi va ziravorlarning maxsus aralashmasidan tayyorlanib, faqat ruhoniylar tomonidan diniy marosimlarni ado etish uchun ishlatilgan (30:22-33 ga qarang).

25:10 *Sandiq* — lug‘atdagi AHD SANDIG‘I iborasiga ishlangan rasmga qarang.

25:10 *…uzunligi ikki yarim tirsak, eni bir yarim tirsak, bo‘yi bir yarim tirsak…* — uzunligi taxminan 110 santimetrga, eni va bo‘yi taxminan 70 santimetrga to‘g‘ri keladi.

25:16 *ahdning amr va qonunlari yozilgan ikkita tosh lavha* — ibroniycha matnda *guvohlik*, ikkita tosh lavhaga ishora. O‘sha tosh lavhalar Xudo va Uning xalqi o‘rtasida tuzilgan ahdning dalili, ya’ni toshga bitilgan guvohlik bo‘lib xizmat qilardi (24:12 ga qarang).

25:17 *…uzunligi ikki yarim tirsak, eni bir yarim tirsak…* — shu bobning 10–oyatiga berilgan ikkinchi izohga qarang.

25:18-19 *ikkita karub* — qanotli samoviy mavjudotlarning haykallari. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi KARUB, KARUBLAR so‘ziga qarang.

25:18-19 *…oltindan zarb urib ikkita karub yasat* — 37:7-8 izohiga qarang.

25:21 *ikkita tosh lavha* — ibroniycha matnda *guvohlik*. Shu bobning 16–oyati izohiga qarang.

25:22 *Ahd sandig‘i* — ibroniycha matnda *Guvohlik sandig‘i*, Ahd sandig‘ining yana bir nomi. 16:34 izohiga qarang.

25:23-24 *xontaxta* — lug‘atdagi OLTIN XONTAXTA iborasiga ishlangan rasmga qarang.

25:23-24 *…uzunligi ikki tirsak, eni bir tirsak, bo‘yi bir yarim tirsak…* — uzunligi taxminan 90 santimetrga, eni taxminan 45 santimetrga, bo‘yi taxminan 70 santimetrga to‘g‘ri keladi.

25:30 *muqaddas nonlar* — bu nonlar Egamizning Muqaddas chodirda zohir bo‘lishini aks ettiruvchi timsol bo‘lib, Xudo Isroil xalqining qudrati va ta’minlovchisi ekanligidan darak berib turgan. Nonlar Chodirdagi maxsus xontaxtaga qo‘yilib, har Shabbat kuni yangi pishirilgan nonlar bilan almashtirib turilgan (Levilar 24:5-9 ga qarang).

25:31 *chiroqpoya* — lug‘atdagi CHIROQPOYA so‘ziga ishlangan rasmga qarang.

25:39 *ikki pud* — ibroniycha matnda *bir talant*, taxminan 34 kiloga to‘g‘ri keladi.

26:1 *Muqaddas chodir* — Muqaddas chodirning rasmi lug‘atdan keyin ilova qilingan “Rasmlar va loyihalar” bo‘limida berilgan.

26:2 *…bo‘yi yigirma sakkiz tirsak, eni to‘rt tirsak…* — bo‘yi taxminan 12,6 metrga, eni taxminan 1,8 metrga to‘g‘ri keladi.

26:6 *…Chodirning ichki qavati bir butun bo‘ladi* — Chodirni tutib turadigan romlar ustiga ichki qavatni tashkil qilgan ikkita choyshab tashlanadi (40:17-19 ga qarang). Chodirni tutib turadigan romlarning butun uzunligi 30 tirsak (taxminan 13,5 metr), eni 10 tirsak (taxminan 4,5 metr), bo‘yi 10 tirsak bo‘ladi (shu bobning 15-29–oyatlariga qarang). Ichki qavat choyshablari halqa va ilgaklar yordamida birlashtirilgandan keyin, ichki qavatning eni 28 tirsakni (taxminan 12,6 metr), uzunligi 40 tirsakni (taxminan 18 metr) tashkil qiladi. Ichki qavat choyshablari Chodirni tutib turadigan romlar ustiga tashlanganda, Chodirning ikki yonboshini yopib, chetlari yerdan bir tirsak (taxminan 45 santimetr) tepada osilib turadi. Choyshablar Chodirning orqa tomonini butunligicha qoplab, yerga tegib turadi. Choyshablar Chodirga kiraverishni yopib turmaydi.

26:8 *…bo‘yi o‘ttiz tirsak, eni to‘rt tirsak…* — bo‘yi taxminan 13,5 metrga, eni taxminan

1,8 metrga to‘g‘ri keladi.

26:9-11 *...Chodirning qoplamasi bir butun bo‘ladi* — Chodirni tutib turadigan romlar ustiga ichki qavatning sirtidan qoplama tashlanadi (40:17-19 ga qarang). Chodirni tutib turadigan romlarning butun uzunligi 30 tirsak (taxminan 13,5 metr), eni 10 tirsak (taxminan 4,5 metr), bo‘yi 10 tirsak bo‘ladi (shu bobning 15-29–oyatlariga qarang). Qoplamaning ikki bo‘lagi halqa va ilgaklar yordamida birlashtirilgandan keyin, qoplamaning eni 30 tirsakni (taxminan 13,5 metr), uzunligi 44 tirsakni (taxminan 19,8 metr) tashkil qiladi. Qoplamani tashkil qilgan choyshablar Chodirni tutib turadigan romlar ustiga tashlanganda, Chodirning ikki yonboshini butunligicha yopib, chetlari yerga tegib turadi (shu bobning 13–oyatiga va o‘sha oyatning izohiga qarang). Qoplama Chodirning orqa tomonini ham butunligicha qoplab, Chodirning orqa tomonidan yerga ikki tirsak (taxminan 90 santimetr) yoyilib turadi (shu bobning 12–oyatiga qarang). Qoplama Chodirga kiraverishni yopib turmaydi, qoplamaning ikki tirsagi yuqorisidan uzunasi bo‘ylab ikki buklanadigan bo‘ladi (shu bobning 9-11–oyatlarining oxirgi gapiga qarang).

26:12 *ikki tirsak* — taxminan 90 santimetrga to‘g‘ri keladi.

26:12 *...ikki tirsak...yerga yoyilib turadi* — shu bobning 9-11–oyatlari izohiga qarang.

26:13 *Qoplamaning eni oxiridagi qo‘shimcha bir tirsak...Chodirni butunlay qoplaydi* — bir tirsak taxminan 45 santimetrga to‘g‘ri keladi. Qoplama ichki qavatdan ikki tirsak enliroq bo‘lgani uchun Chodirning ikki yonboshidan yergacha osilib turar edi (shu bobning 6, 9-11–oyatlariga berilgan izohlarga qarang). Qoplama Chodirning tomini, ikki yonboshini va orqa tomonini to‘liq qoplab turgani uchun, Chodirning ichki qavati tashqaridan umuman ko‘rinmas edi.

26:14 *yumshoq teri* — 25:5 ning birinchi izohiga qarang.

26:15 *Akas yog‘ochi* — 25:5 ning ikkinchi izohiga qarang.

26:15 *romlar* — lug‘atdagi ROMLAR so‘ziga ishlangan rasmga qarang.

26:16 *...bo‘yi o‘n tirsak, eni bir yarim tirsak...* — bo‘yi taxminan 4,5 metrga, eni taxminan 70 santimetrga to‘g‘ri keladi.

26:29 *...tambalarni ushlab turadigan oltin halqalarni romlarga birlashtir...* — romlar bir–biriga tambalar yordamida birlashtirilar edi. Tambalar romlardagi halqalardan o‘tkazilar edi. Tambalar qay tarzda o‘rnashtirilgani matnda aniq yozilmagan. Har devordagi to‘rtta tamba devorning yarim uzunligida bo‘lib, romlardagi yuqori va pastki halqalardan o‘tkazilgan bo‘lishi mumkin. Romlarning o‘rtasidan o‘tkazilgan tamba esa Chodirning uzunligida bo‘lib, barcha romlarni birlashtirar edi (shu bobning 28–oyatiga qarang).

26:33 *Chodir shipidagi ilgaklar* — bu ilgaklar yordamida Chodirning ichki qavatini tashkil qilgan ikki choyshab bir–biriga birlashtiriladi (shu bobning 4-6–oyatlariga qarang). Bu ichki qavat Chodirni tutib turadigan romlar ustiga tashlanadi (40:17-19 ga qarang). Mana shu ichki qavatni birlashtirgan ilgaklar bir qator bo‘lib, Chodirning butun eni bo‘ylab cho‘ziladi. Ilgaklar qatori Chodirga kiraverishdan 20 tirsak (taxminan 9 metr) masofada joylashadi (shu bobning 6–oyati izohiga qarang). Shuning uchun Chodirning Eng muqaddas xonasi kub shaklida bo‘lib, har bir devorning eni, bo‘yi va

uzunligi 10 tirsakni (taxminan 4,5 metr) tashkil qiladi.

26:33 *Ahd sandig‘i* — ibroniycha matnda *Guvohlik sandig‘i*, Ahd sandig‘ining yana bir nomi (shu bobning 34–oyatida ham bor). 16:34 izohiga qarang.

27:1 *Akas yog‘ochi* — 25:5 ning ikkinchi izohiga qarang.

27:1 *qurbongoh* — lug‘atdagi QURBONGOH so‘zi ostida berilgan BRONZA QURBONGOH iborasiga ishlangan rasmga qarang.

27:1 *…uzunligi besh tirsak, eni ham besh tirsak, bo‘yi uch tirsak…* — uzunligi va eni taxminan 2,3 metrga, bo‘yi taxminan 1,4 metrga to‘g‘ri keladi.

27:9 *yuz tirsak* — taxminan 45 metrga to‘g‘ri keladi (shu bobning 11–oyatida ham bor).

27:12 *ellik tirsak* — taxminan 22,5 metrga to‘g‘ri keladi (shu bobning 13–oyatida ham bor).

27:14-15 *o‘n besh tirsak* — taxminan 6,8 metrga to‘g‘ri keladi.

27:16 *yigirma tirsak* — taxminan 9 metrga to‘g‘ri keladi.

27:18 *…uzunligi yuz tirsak, eni ellik tirsak…* — uzunligi taxminan 45 metrga, eni taxminan 22,5 metrga to‘g‘ri keladi.

27:18 *besh tirsak* — taxminan 2,3 metrga to‘g‘ri keladi.

27:21 *Ahd sandig‘i* — ibroniycha matnda *Guvohlik*, Ahd sandig‘ining yana bir nomi. 16:34 izohiga qarang.

28:2 *ruhoniylik liboslari* — lug‘atdagi RUHONIY so‘zi ostida berilgan OLIY RUHONIY iborasiga ishlangan rasmlarga qarang.

28:6 *Efod* — lug‘atdagi RUHONIY so‘zi ostida berilgan OLIY RUHONIY iborasiga ishlangan rasmlarga qarang.

28:14 *Bu ikkala zanjirning bir uchi uyaga mahkamlanadi* — ushbu oltin zanjirlar va uyalar yordamida ko‘krakpech efodning yelka bog‘ichlariga bog‘lanadi (shu bobning 22-25–oyatlariga qarang). Bu oyatdagi uyalar shu bobning 9-11–oyatlaridagi uyalardan boshqa.

28:15 *ko‘krakpech* — lug‘atdagi KO‘KRAKPECH so‘ziga ishlangan rasmga qarang.

28:15 *…ko‘krakpech yasat. U hukm qilayotganda, Xudoning xohishini bilish uchun mana shu ko‘krakpechdan foydalanadi* — ibroniycha matnda *…hukm ko‘krakpechi yasat*. Ko‘krakpechning xaltasida Urim va Tummim degan muqaddas narsalar saqlangan. Ayrim hollarda ruhoniylar Xudoning xohishini bilish uchun Urim va Tummimdan foydalanishgan (Sahroda 27:21, 1 Shohlar 14:41, 28:6, Ezra 2:63, Naximiyo 7:65 ga qarang). Taxminlarga ko‘ra, bular qur’a tashlashda ishlatilgan bo‘lib, biri “ha”, ikkinchisi “yo‘q”ni bildirardi. Shu sababdan ko‘krakpech “hukm ko‘krakpechi” deb nomlangan edi (shu bobning 30–oyatiga qarang).

28:17 *to‘rt qator tosh* — ibroniycha matnda aytib o‘tilgan ba’zi qimmatbaho toshlarning turi bahsli.

28:22-23 *…ikkita zanjirni ol* — shu bobning 14–oyatida aytib o‘tilgan ikkita zanjirga ishora.

28:25 *…ikkinchi uchini naqshli oltin uyalarga mahkamlat* — bu gap shu bobning 14–

oyatida berilgan koʻrsatmaning takroridir.

28:29 *koʻkrakpech* — ibroniycha matnda *hukm koʻkrakpechi* (shu bobning 30–oyatida ham bor). Shu bobning 15–oyatiga berilgan ikkinchi izohga qarang.

28:31 *Efodning ridosi* — uzun, yengsiz bir kiyim boʻlishi mumkin. Rido efodning tagidan, naqshli koʻylakning ustidan kiyilar edi (29:5 ga va Levilar 8:7 ga qarang).

28:33-34 *anor* — qadimgi paytlarda hayot ramzi edi.

28:42 *Tananing ochiq joylari koʻrinib qolmasin…* — 20:26 izohiga qarang.

29:5 *Horunga…kiygiz* — oliy ruhoniy Horun koʻylagi ustidan belbogʻ bogʻlagan, lekin bu belbogʻ rido va efodning tagida boʻlgan (Levilar 8:7 ga qarang). Bu haqda keyinroq, shu bobning 9–oyatida aytib oʻtiladi (yana 28:2-4 ga qarang).

29:7 *muqaddas qiladigan moy* — 25:6 izohiga qarang.

29:12 *qurbongohning shoxlari* — 27:2 ga qarang.

29:13 *jigarning a'lo qismi* — ibroniycha matndan soʻzma–soʻz tarjimasi *jigarning turtib chiqqan joyi* (shu bobning 22–oyatida ham bor). Bu oʻrinda nima uchun jigarning aynan shu qismi haqida soʻz ketgani aniq emas. Ba'zi olimlarning fikri boʻyicha, jigarning bu qismi eng a'lo qism hisoblanib, Egamizga atab kuydirishga loyiq edi. Boshqalarning aytishicha esa, butparast xalqlar jigarning bu qismini fol ochishda ishlatganlari uchun, uni kuydirib yoʻq qilish kerak edi. Boshqa olimlar esa bu oʻrindagi ibroniycha soʻzni "jigarni qoplab turgan parda" deb talqin qilishadi.

29:14 *gunoh qurbonligi* — birortasi bilmay qilgan gunohi uchun Xudodan kechirim soʻrab keltirgan qurbonligi. Toʻliqroq ma'lumotga ega boʻlish uchun lugʻatdagi QURBONLIK soʻzi ostida berilgan GUNOH QURBONLIGI iborasiga qarang.

29:20 *solinchak* — quloqning pastki yumshoq qismi.

29:32 *savatdagi nonlar* — shu bobning 2-3, 23–oyatlariga qarang.

29:40-41 *ikki kosa* — ibroniycha matnda *chorak xin*, taxminan 1 litrga toʻgʻri keladi (shu oyatda ikki marta ishlatilgan).

29:40-41 *toʻrt kosa* — ibroniycha matnda *efaning oʻndan bir qismi*, taxminan 2 litrga toʻgʻri keladi.

30:1 *akas yogʻochi* — 25:5 ning ikkinchi izohiga qarang.

30:1 *qurbongoh* — lugʻatdagi QURBONGOH soʻzi ostida berilgan TUTATQI QURBONGOHI iborasiga ishlangan rasmga qarang.

30:2 *…uzunligi bir tirsak, eni ham bir tirsak, boʻyi esa ikki tirsak…* — uzunligi va eni taxminan 45 santimetrga, boʻyi taxminan 90 santimetrga toʻgʻri keladi.

30:6 *Ahd sandigʻi* — ibroniycha matnda *Guvohlik sandigʻi*, Ahd sandigʻining yana bir nomi (shu bobning 26–oyatida ham bor). 16:34 izohiga qarang.

30:9 *muqaddas tutatqi* — ziravorlarning maxsus aralashmasidan hosil boʻlgan bu tutatqining turi faqat tutatqi qurbongohi ustida kuydirilishi mumkin edi (shu bobning 34-38–oyatlariga qarang).

30:10 *bir yilda bir marta* — Poklanish kuniga ishora (Levilar 16:18-19 ga qarang). Poklanish kuni ibroniy kalendarining yettinchi oyi — Tishri oyining oʻninchi kunida

nishonlangan (Tishri oyi Itanim oyi deb ham ataladi). Hozirgi kalendarga koʻra, bu oy taxminan sentabrning oʻrtasidan boshlanadi.

30:12 *himoya qiladigan toʻlov* — shu bobning 15–oyati izohiga qarang.

30:13-14 *…1,25 misqol kumushdan…* — ibroniycha matnda *…yarim shaqaldan ol. Har bir shaqalning ogʻirligi Muqaddas chodirda ishlatiladigan shaqalning ogʻirligiga teng kelib, 20 gera boʻlsin…*. 20 gera taxminan 11 grammga toʻgʻri keladi, demak, har bir odam bergan kumush taxminan 6 grammga toʻgʻri keladi.

30:15 *…oʻzlarini Mening hukmimdan himoya qiladigan nazrni…* — qadimgi Isroilda odamlarni sanash xavfli hisoblanar edi (1 Shohlar 24–bobga qarang), chunki butun odamzod Xudoga tegishli, deb hisoblangan hamda sanash egalik ma'nosini bildirgan. Bundan tashqari, odamlarni sanash Xudoga ishonmaslikni ham bildirishi mumkin. Odamlarni sanash lashkarning soniga inonish va soxta xavfsizlik hissini vujudga keltirishi mumkin edi. Odamlarni sanash hukmga olib kelishi mumkin boʻlgani uchun, mana shu parchada Xudo, sanalgan odamlar Menga nazr keltirsinlar, deb amr bergan. Shu yoʻl bilan sanalgan odamlar oʻzlarining Xudoga boʻlgan qoʻrquvlarini namoyon etib, oʻzlarini himoya qilar edilar.

30:23 *1250 misqol* — ibroniycha matnda *500 shaqal*, taxminan 6 kiloga toʻgʻri keladi.

30:23 *suyuq mirra* — ma'lum bir daraxtlar yelimidan tayyorlangan xushboʻy moy.

30:23 *625 misqol* — ibroniycha matnda *250 shaqal*, taxminan 3 kiloga toʻgʻri keladi (shu oyatda ikki marta ishlatilgan).

30:24 *…1250 misqol kassiya* — ibroniycha matnda *…500 shaqal kassiya, har biri Muqaddas chodirda ishlatiladigan shaqalga koʻra oʻlchangan*. Muqaddas chodirda ishlatilgan standart shaqal taxminan 11 grammga toʻgʻri keladi, demak, 500 shaqal kassiya taxminan 5,5 kiloga toʻgʻri keladi.

30:24 *Sakkiz kosa* — ibroniycha matnda *bir xin*, taxminan 4 litrga toʻgʻri keladi.

30:36 *Ahd sandigʻi* — ibroniycha matnda *Guvohlik*, Ahd sandigʻining yana bir nomi. 16:34 izohiga qarang.

31:7 *Ahd sandigʻi* — ibroniycha matnda *Guvohlik sandigʻi*, Ahd sandigʻining yana bir nomi. 16:34 izohiga qarang.

31:11 *muqaddas qiladigan moy* — 25:6 izohiga qarang.

31:18 *…Xudo Sinay togʻida Muso bilan gapini tugatib…* — Egamiz togʻda Musoga bergan barcha koʻrsatmalar 25:1-31:17 da qayd etilgan (24:18 ga qarang).

31:18 *ahd* — ibroniycha matnda *guvohlik*. 25:16 izohiga qarang.

32:1 *Muso togʻda uzoq qolib ketdi* — 24:18 ga qarang.

32:4 *…buqa yasadi…buqani oltin bilan qopladi* — qadimgi paytlarda koʻpincha butlarni yogʻochdan yasab, ustini oltin bilan qoplashar edi. Shu singari, bu parchada aytib oʻtilgan buqa ham butunlay oltindan yasalmagan boʻlishi mumkin (yana shu bobning 20–oyatiga qarang, oʻsha oyatda Muso buqani olovda yoqqani, soʻng uni ezib, kukun qilgani yozilgan).

32:13 *Yoqub* — ibroniycha matnda *Isroil*, Yoqubning yana bir ismi (Ibtido 32:27-28 ga qarang).

32:15 *ahd* — ibroniycha matnda *guvohlik*. 25:16 izohiga qarang.

32:20 *suvga sochdi* — Qonunlar 9:21 ga qarang.

32:27 *…birodaringizni, qo‘shningizni va yaqin qarindoshingizni o‘ldiring* — bu amr, isyonning yo‘lboshchilarini o‘ldiring, degan ma’noni bildirishi mumkin. O‘sha yo‘lboshchilar aka–uka, qo‘shni yoki yaqin qarindoshdan bo‘lsa ham, o‘ldirilishi kerak edi. Butun xalqni qirg‘indan asrab qolish uchun aybdor odamlar o‘ldirilishi shart edi.

33:3 *Sut va asal oqib yotgan o‘sha yurt* — 3:8 izohiga qarang.

33:6 *Sinay tog‘i* — ibroniycha matnda *Xorev tog‘i*, Sinay tog‘ining yana bir nomi.

33:7 *Uchrashuv chodiri* — shu bobning 7-11–oyatlarida aytib o‘tilgan chodir Muqaddas chodir emas (Muqaddas chodir yana Uchrashuv chodiri deb ham aytiladi). O‘sha paytda Muqaddas chodir hali yasalmagan edi (25:10-22, 26:1-37 ga qarang).

33:11 *yuzma–yuz* — boshqa bir odam yoki mavjudot orqali emas, balki *to‘g‘ridan–to‘g‘ri, bevosita, shaxsan* degan ma’noda kelgan.

33:19 *Men O‘zimni senga ma’lum qilaman* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *Men YHVH ismimni sizlarga e’lon qilaman* (3:15 izohiga qarang). Yahudiylarning tasavvuriga ko‘ra odamning ismi uning xarakteri va xulq–atvorini ifodalaydi. Musoning iltijosiga javoban Xudo O‘zini Musoga zohir etib, O‘zining xarakteri va fazilatlarini ma’lum qiladi (34:5-7 ga qarang).

33:20 *…yuzimni…* — bu oyatda Xudoning ulug‘vorligi to‘liq namoyon bo‘lishi nazarda tutilgan.

34:5 *…O‘zini Musoga ma’lum qildi* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *…YHVH ismini e’lon qildi*. 3:15, 33:19 ning izohlariga qarang.

34:6 *Men Egangman! Men Egangman!* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *YHVH! YHVH!* 3:15 izohiga qarang.

34:7 *Ming–ming avlodlarga…* — yoki *Minginchi avlodga…* yoxud *Minglab odamlarga….*

34:13 *Ashera* — Kan’ondagi xalqlar sajda qilgan hosildorlik xudosi bo‘lib, ayol qiyofasida tasavvur qilingan. Uning erkak jufti Baal edi. Asheraning tasvirlari baland ustun shaklida bo‘lib, yog‘ochdan yasalgan edi.

34:17 *xudolar tasvirlari* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *quyma xudolar*, qadimgi paytlarda keng tarqalgan butlarning turiga ishora. Bu o‘rinda “quyma xudolar” termini turli xil butlarning turiga nisbatan ishlatilgan (yana 20:3-4 ga qarang).

34:18 *Abib oyi* — ibroniy kalendarining birinchi oyi (Abib oyi Nison oyi deb ham ataladi). Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan martning o‘rtasidan boshlanadi.

34:18 *Men sizlarga amr etganimday, Abib oyining belgilangan vaqtida…* — 12:14-20 ga qarang.

34:20 *eshak* — 13:13 ning birinchi izohiga qarang.

34:20 *…hamma to‘ng‘ich o‘g‘illarni ham qaytarib sotib olishingiz lozim* — Sahroda 18:15-16 ga qarang.

34:20 *Har kim…nazrlar olib kelishi lozim* — bu ko‘rsatma shu bobning 18–oyatida aytib o‘tilgan Xamirturushsiz non bayrami bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin (23:15 ga qarang).

34:22 *Hosil bayrami* — ibroniycha matnda *Haftalar bayrami*, Hosil bayramining yana bir nomi.

34:22 *Chayla bayrami* — ibroniycha matnda *Yig'ish bayrami*, Chayla bayramining yana bir nomi.

34:23 *uchala bayram* — shu bobning 18, 22–oyatlarida aytib o'tilgan uchta bayram (yana 23:14-17 ga qarang).

34:24 *uch marta* — shu bobning 23–oyati izohiga qarang.

34:26 *Uloqchani onasining sutida qaynatmanglar* — 23:19 izohiga qarang.

34:29 *ikkita lavha* — ibroniycha matnda *guvohlikning ikkita lavhasi*. 25:16 izohiga qarang.

35:7 *yumshoq teri* — 25:5 ning birinchi izohiga qarang.

35:7 *akas yog'ochi* — 25:5 ning ikkinchi izohiga qarang.

35:8 *muqaddas qiladigan moy* — 25:6 izohiga qarang.

35:13 *muqaddas nonlar* — 25:30 izohiga qarang.

35:23 *yumshoq teri* — 25:5 ning birinchi izohiga qarang.

35:30 *...Muso Isroil xalqiga aytdi...* — 35:30-36:1 da Muso Isroil xalqiga Xudoning 31:1-6 aytgan gaplarini yetkazib bermoqda.

36:8 *Muqaddas chodir* — Muqaddas chodirning rasmi lug'atdan keyin ilova qilingan "Rasmlar va loyihalar" bo'limida berilgan.

36:9 *...bo'yi yigirma sakkiz tirsak, eni to'rt tirsak...* — bo'yi taxminan 12,6 metrga, eni taxminan 1,8 metrga to'g'ri keladi.

36:13 *...Chodirning ichki qavati bir butun bo'ldi* — 26:6 izohiga qarang.

36:15 *...bo'yi o'ttiz tirsak, eni to'rt tirsak...* — bo'yi taxminan 13,5 metrga, eni taxminan 1,8 metrga to'g'ri keladi.

36:18 *...Chodirning qoplamasi bir butun bo'lsin...* — 26:9-11 izohiga qarang.

36:19 *yumshoq teri* — 25:5 ning birinchi izohiga qarang.

36:20 *Akas yog'ochi* — 25:5 ning ikkinchi izohiga qarang.

36:20 *romlar* — lug'atdagi ROMLAR so'ziga ishlangan rasmga qarang.

36:21 *...bo'yi o'n tirsak, eni bir yarim tirsak...* — bo'yi taxminan 4,5 metrga, eni taxminan 70 santimetrga to'g'ri keladi.

36:34 *...tambalarni ushlab turadigan oltin halqalarni romlarga birlashtirdilar...* — 26:29 izohiga qarang.

36:35 *ichki parda* — Muqaddas xonani Eng muqaddas xonadan ajratib turar edi (26:31-33 ga qarang).

37:1 *akas yog'ochi* — 25:5 ning ikkinchi izohiga qarang.

37:1 *Sandiq* — lug'atdagi AHD SANDIG'I iborasiga ishlangan rasmga qarang.

37:1 *...uzunligi ikki yarim tirsak, eni bir yarim tirsak, bo'yi bir yarim tirsak...* — uzunligi taxminan 110 santimetrga, eni va bo'yi taxminan 70 santimetrga to'g'ri keladi.

37:6 *...uzunligi ikki yarim tirsak, eni bir yarim tirsak...* — shu bobning 1–oyatiga berilgan oxirgi izohga qarang.

37:7-8 *...oltindan zarb urib ikkita karub yasadilar* — oltin karublar ichi bo‘sh qilib yasalgan bo‘lishi mumkin, ammo butunlay oltindan yasalgani ham ehtimoldan xoli emas.

37:10-11 *xontaxta* — lug‘atdagi OLTIN XONTAXTA iborasiga ishlangan rasmga qarang.

37:10-11 *...uzunligi ikki tirsak, eni bir tirsak, bo‘yi bir yarim tirsak...* — uzunligi taxminan 90 santimetrga, eni taxminan 45 santimetrga, bo‘yi taxminan 70 santimetrga to‘g‘ri keladi.

37:17 *chiroqpoya* — lug‘atdagi CHIROQPOYA so‘ziga ishlangan rasmga qarang.

37:24 *ikki pud* — ibroniycha matnda *bir talant*, taxminan 34 kiloga to‘g‘ri keladi.

37:25 *tutatqi qurbongohi* — lug‘atdagi QURBONGOH so‘zi ostida berilgan TUTATQI QURBONGOHI iborasiga ishlangan rasmga qarang.

37:25 *...uzunligi bir tirsak, eni ham bir tirsak, bo‘yi esa ikki tirsak...* — uzunligi va eni taxminan 45 santimetrga, bo‘yi taxminan 90 santimetrga to‘g‘ri keladi.

37:29 *muqaddas qiladigan moy* — 25:6 izohiga qarang.

38:1 *Akas yog‘ochi* — 25:5 ning ikkinchi izohiga qarang.

38:1 *qurbongoh* — lug‘atdagi QURBONGOH so‘zi ostida berilgan BRONZA QURBONGOH iborasiga ishlangan rasmga qarang.

38:1 *...uzunligi besh tirsak, eni ham besh tirsak, bo‘yi uch tirsak...* — uzunligi va eni taxminan 2,3 metrga, bo‘yi taxminan 1,4 metrga to‘g‘ri keladi.

38:8 *Uchrashuv chodiriga kiraverishda xizmat qilgan ayollar...* — bu ayollar guruhi haqida hech qanday ma’lumot saqlanib qolmagan. Ular Muqaddas Kitobning yana bir joyida — 1 Shohlar 2:22 da tilga olingan. Ehtimol, bu ayollar alohida bir va’da bo‘yicha o‘zlarini Xudoga nazr sifatida bag‘ishlab, Unga xizmat qilganlar (Sahroda 6:1-2 ga qarang).

38:8 *bronza ko‘zgular* — qadimgi paytlarda ayollar ishlatadigan kichkina ko‘zgular yaxshi silliqlangan dumaloq shakldagi metalldan tayyorlanar edi.

38:9 *yuz tirsak* — taxminan 45 metrga to‘g‘ri keladi (shu bobning 11–oyatida ham bor).

38:12 *ellik tirsak* — taxminan 22,5 metrga to‘g‘ri keladi (shu bobning 13–oyatida ham bor).

38:14-15 *o‘n besh tirsak* — taxminan 6,8 metrga to‘g‘ri keladi.

38:18 *yigirma tirsak* — taxminan 9 metrga to‘g‘ri keladi.

38:18 *besh tirsak* — taxminan 2,3 metrga to‘g‘ri keladi.

38:21-23 *Muqaddas ahd chodiri* — ibroniycha matnda *Chodir — Guvohlik chodiri*. Muqaddas chodirning yana bir nomi. Ibroniycha matndagi iboraning *guvohlik* so‘zi o‘nta amr yozilgan ikkita tosh lavhaga ishora qiladi. Bu tosh lavhalar Xudo va Uning xalqi o‘rtasida tuzilgan ahdning dalili, ya’ni toshga bitilgan guvohlik bo‘lib xizmat qilardi. Bu ikki tosh lavha Muqaddas chodirdagi Ahd sandig‘ining ichida saqlanardi (40:20 ga qarang).

38:24 *62,5 pud* — ibroniycha matnda *29 talantu 730 shaqal edi, bular Muqaddas chodirda ishlatiladigan shaqalga ko‘ra o‘lchangan*. Oltinning og‘irligi taxminan 1 tonnaga to‘g‘ri keladi.

38:25 *Sanab chiqilgan xalqdan yig‘ilgan kumush* — 30:11-16 ga qarang.

38:25 *214 pud* — ibroniycha matnda *100 talantu 1775 shaqal edi, bular Muqaddas chodirda ishlatiladigan shaqalga ko‘ra o‘lchangan*. Kumushning og‘irligi taxminan 3,42 tonnaga to‘g‘ri keladi.

38:26 *1,25 misqol* — ibroniycha matnda *bir biqo, ya’ni yarim shaqal, Muqaddas chodirda ishlatiladigan shaqalga ko‘ra o‘lchangan*. Muqaddas chodirda ishlatilgan standart shaqal taxminan 11 grammga to‘g‘ri keladi, demak, biqo taxminan 6 grammga to‘g‘ri keladi.

38:27 *213 pud…2 puddan ortiq…* — ibroniycha matnda *100 talant…1 talant…*. 100 talant — taxminan 3,4 tonnaga to‘g‘ri keladi, 1 talant — taxminan 34 kiloga to‘g‘ri keladi.

38:28 *1 pud* — ibroniycha matnda *1775 shaqal*, taxminan 20 kiloga to‘g‘ri keladi.

38:29 *151 pud* — ibroniycha matnda *70 talant, 2400 shaqal*, taxminan 2,4 tonnaga to‘g‘ri keladi.

39:2 *efod* — lug‘atdagi RUHONIY so‘zi ostida berilgan OLIY RUHONIY iborasiga ishlangan rasmlarga qarang.

39:8 *ko‘krakpech* — lug‘atdagi KO‘KRAKPECH so‘ziga ishlangan rasmga qarang.

39:10 *to‘rt qator tosh* — ibroniycha matnda aytib o‘tilgan ba’zi qimmatbaho toshlarning turi bahsli.

39:22 *Efodning ridosi* — 28:31 izohiga qarang.

39:24-26 *anor* — qadimgi paytlarda hayot ramzi edi.

39:34 *yumshoq teri* — 25:5 ning birinchi izohiga qarang.

39:35 *Ahd sandig‘i* — ibroniycha matnda *Guvohlik sandig‘i*, Ahd sandig‘ining yana bir nomi. 16:34 izohiga qarang.

39:36 *muqaddas nonlar* — 25:30 izohiga qarang.

39:38 *muqaddas qiladigan moy* — 25:6 izohiga qarang.

40:2 *Birinchi oy* — 12:2 izohiga qarang.

40:3 *Ahd sandig‘i* — ibroniycha matnda *Guvohlik sandig‘i*, Ahd sandig‘ining yana bir nomi (shu bobning 5, 21–oyatlarida ham bor). 16:34 izohiga qarang.

40:3 *ichki parda* — Muqaddas xonani Eng muqaddas xonadan ajratib turar edi (26:31-33 ga qarang).

40:4 *…xontaxta olib kirilsin…Chiroqpoya ham olib kirilsin…* — bu jihozlar Muqaddas xonaga, ichki pardaning oldiga qo‘yilgan edi (26:35 ga va shu bobning 22-23–oyatlariga qarang).

40:5 *…Ahd sandig‘i oldiga qo‘ydir* — oltin tutatqi qurbongohi Muqaddas xonaga, ichki pardaning oldiga qo‘yilgan edi (30:6 ga va shu bobning 26–oyatiga qarang).

40:9 *muqaddas qiladigan moy* — 25:6 izohiga qarang.

40:17-18 *Ikkinchi yilning birinchi oyi* — Isroil xalqi Misrdan chiqqaniga bir yil bo‘lib,

ikkinchi yil boshlangan (12:2 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang) va Sinay tog‘iga yetib borganiga taxminan to‘qqiz oy bo‘lgan edi (19:1-2 ga qarang).

40:20 *...ahdning amr va qonunlari yozilgan ikkita tosh lavhani...* — ibroniycha matnda *...guvohlikni...*. 25:16 izohiga qarang.

40:23 *muqaddas nonlar* — 25:30 izohiga qarang.

40:29 *qurbonlik bilan don nazri* — kundalik nazrlarga ishora (29:38-41 ga qarang).

LEVILAR

(TAVROTNING UCHINCHI KITOBI)

Kirish

Levilar kitobi Tavrotning uchinchi kitobidir. Mazkur kitob Xudoning Muso payg‘ambarga bergan qonun–qoidalaridan tashkil topgan. Levi qabilasi Yoqubning o‘g‘li Levidan kelib chiqqan edi. Yoqubning o‘n ikki o‘g‘li bo‘lib, Levi uchinchi farzandi edi. Levi qabilasiga mansub bo‘lganlar levilar deb ataladi, kitobga shu qabilaning nomi asos bo‘lgan.

Chiqish kitobida Xudo Musoga Muqaddas chodirni yasashga oid ko‘rsatmalar bergan bo‘lsa, bu kitobda o‘sha Muqaddas chodirda xizmat qilish mavzusi markaziy o‘rinni egallaydi. Levilar Muqaddas chodirda Xudoning maxsus xizmatkorlari edilar. Ruhoniylar Levi qabilasining Horun urug‘idan kelib chiqqanlar. Kitobning asosiy qismida ruhoniylarning va boshqa levilarning majburiyatlari bayon qilingan. Ularning majburiyatlari Xudoga bag‘ishlab qurbonliklar va nazrlar keltirishdan, shuningdek, bayramlarni va turli marosimlarni o‘tkazishdan iborat edi. Kitobdan yana halol va harom hayvonlarga oid qonunlar, kiyim uchun qanday matodan foydalanish kerakligi to‘g‘risidagi ko‘rsatmalar va kambag‘allarga g‘amxo‘rlik qilish qoidalari o‘rin olgan.

Kitobdagi qonun–qoidalar zamirida poklik va muqaddaslik yotadi. Muqaddaslik o‘zini gunohdan saqlash va Xudoga bag‘ishlanib yashashni bildiradi. Modomiki, Xudo O‘z xalqining muqaddas Shohi ekan, xalq Xudoning huzuriga kelishi uchun qurbonliklar qoni orqali gunohlardan poklanishi lozim edi. Bu ishda xalqqa levilar yordam berishardi. Xudoga manzur bo‘lish va Uning huzuridan bahramand bo‘lish uchun kitobdagi barcha qonun–qoidalarga rioya qilish shart edi.

Kitobda qonunlardan tashqari, bir nechta hikoyalar ham o‘rin olgan. Bu hikoyalarda xalqning yoki ruhoniylarning qonunga itoatsizligi qanday oqibatlarga olib kelishi to‘g‘risida bayon qilinadi. Shuningdek, qonunga itoatkorlikning samaralari ham aytib o‘tiladi.

1–BOB

Kuydiriladigan qurbonliklar

1 Egamiz Uchrashuv chodiridan Musoni chaqirib, unga 2 Isroil xalqi uchun quyidagi
qonunlarni berdi: birontangiz Egamizga qurbonlik qilmoqchi bo‘lsangiz, podangizdagi
yoki suruvingizdagi hayvonni olib keling. 3 Bordi–yu, qoramol podasidan birorta
hayvonni qurbonlik qilib, kuydirmoqchi bo‘lsangiz, nuqsonsiz bir buqani tanlab oling.
Egamiz bu qurbonligingizni* qabul qilishi uchun buqani Uchrashuv chodiri
kiraverishiga olib keling.
4 Kuydiriladigan hayvonning boshiga qo‘lingizni qo‘ying, shunda Egamiz sizni
gunohingizdan poklash uchun bu qurbonligingizni qabul qiladi.
5 So‘ng buqani Egamizning huzurida so‘ying. Horunning ruhoniy o‘g‘illari buqaning
qonini olib, Uchrashuv chodiriga kiraverishda turgan qurbongohning to‘rtala yon
tomoniga sepib chiqishsin. 6 Siz esa kuydiriladigan qurbonlikning terisini shilib, tanasini

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

bo‘laklarga bo‘ling. 7 Ruhoniy Horunning o‘g‘illari qurbongohga cho‘g‘ solib, ustiga o‘tin
qalashsin. 8 So‘ng qurbonlikning bo‘laklarini, shuningdek, kallasini va yog‘larini
qurbongohdagi yonib turgan o‘tinlar ustiga qo‘yishsin. 9 Siz esa qurbonlikning ichak–
chovoqlari va oyoqlarini yuving. So‘ng ruhoniy bularning hammasini qurbongohda
kuydirsin. Olovda kuydirilgan bu qurbonlikdan Egamizga yoqimli hid boradi.
10 Bordi–yu, siz suruvingizdagi qo‘y yoki echkini qurbonlik qilib kuydirmoqchi
bo‘lsangiz, nuqsonsiz qo‘chqor yoki takani olib keling. 11 Uni qurbongohning shimol
tarafida, Egamizning huzurida so‘ying. Horunning ruhoniy o‘g‘illari qurbonlikning
qonini qurbongohning to‘rtala yon tomoniga sepib chiqishsin. 12 Siz qurbonlikni
bo‘laklarga bo‘ling. Ruhoniy esa bo‘laklarni qurbonlikning kallasi va yog‘lari bilan birga
qurbongohdagi yonib turgan o‘tinlar ustiga qo‘ysin. 13 Siz qurbonlikning ichak–
chovoqlari va oyoqlarini yuving. Ruhoniy bularning hammasini keltirib, qurbongohda
kuydirsin. Olovda kuydirilgan bu qurbonlikdan Egamizga yoqimli hid boradi.
14 Agar biror qushni Egamizga qurbonlik qilib, kuydirmoqchi bo‘lsangiz, kaptar yoki
musichani* olib keling. 15 Ruhoniy uni qurbongoh oldiga olib kelib, bo‘ynini uzsin, so‘ng
boshini qurbongohda kuydirsin. Qonini esa qurbongohning yoniga oqizsin.
16 Jig‘ildonini, ichidagi narsalari bilan birga, sug‘urib olib*, qurbongohning sharq
tarafiga, kul turgan yerga tashlasin. 17 Keyin qanotlaridan tortib, tanasini yarmigacha
bo‘lsin, lekin ikki qismga ajratmasin. So‘ng uni qurbongohdagi yonib turgan o‘tinlar
ustiga qo‘yib kuydirsin. Olovda kuydirilgan bu qurbonlikdan Egamizga yoqimli hid
boradi.

2–BOB

Don nazri

1 Agar birortangiz Egamizga don nazrini keltirmoqchi bo‘lsangiz, sifatli bug‘doy unini
nazr qiling. Bug‘doy uniga zaytun moyini qo‘shib, ustiga xushbo‘y tutatqidan qo‘ying.
2 So‘ng o‘sha bug‘doy unini Horunning ruhoniy o‘g‘illariga olib keling. Ruhoniy moy
qo‘shilgan sifatli unning bir hovuchini va ustidagi tutatqining hammasini olib,
qurbongoh ustida kuydirsin. Bunday qilish nazrning hammasi Xudoga tegishli ekanini
bildiradi. Olovda kuydirilgan bu nazrdan Egamizga yoqimli hid boradi. 3 Don nazrining
qolgani esa Horun va uning o‘g‘illariniki bo‘lsin. Nazrning ruhoniylarga tegishli bu qismi
g‘oyat muqaddasdir, chunki u Egamizga atalgan, olovda kuydiriladigan nazrlardan
qolgan qismidir.
4 Agar tandirda yopilgan nonni don nazri sifatida keltirmoqchi bo‘lsangiz, zaytun
moyiga qorilgan nonlarni yoki yuziga zaytun moyi surtilgan chalpaklarni nazr qiling.
Ularni sifatli undan yopib, xamirturush qo‘shmang. 5 Agar tovada pishirilgan nonni nazr
qilmoqchi bo‘lsangiz, noningiz zaytun moyiga qorilgan sifatli undan yopilgan bo‘lsin.
Unga xamirturush qo‘shmang. 6 Nonni sindirib, ustiga zaytun moyidan quying. Bu don
nazridir. 7 Agar nazringiz qozonda tayyorlangan bo‘lsa, u sifatli undan tayyorlangan
bo‘lib, zaytun moyida qovurilgan bo‘lishi kerak. 8 Don nazringizni qaysi usulda
tayyorlaganingizdan qat’i nazar, uni Egamizga olib kelib, ruhoniyga bering. Ruhoniy esa
uni qurbongohga olib borsin. 9 Ruhoniy don nazringizning bir qismini olib, qurbongohda
kuydirsin. Bunday qilish nazrning hammasi Xudoga tegishli ekanini bildiradi. Olovda
kuydirilgan bu nazrdan Egamizga yoqimli hid boradi. 10 Don nazringizning qolgani esa

Horun va uning o‘g‘illariniki bo‘lsin. Nazrning ruhoniylarga tegishli bu qismi g‘oyat muqaddasdir, chunki u Egamizga atalgan, olovda kuydiriladigan nazrlardan qolgan qismidir.

11 Egamizga keltiradigan don nazringizning birortasiga xamirturush qo‘shmang. Na xamirturushni, na qiyomni olovda kuydirib, Egamizga nazr qilmang. 12 Xamirturush va qiyomni ilk hosil nazringizga qo‘shib, Egamizga keltirishingiz mumkin. Lekin Egamizga yoqimli hid borsin deb, bularni qurbongoh ustida kuydirmang. 13 Don nazringizning hammasiga tuz qo‘shing. Zotan, tuz Xudoyingiz sizlar bilan tuzgan ahdni bildiradi*. Shunday ekan, birorta nazringiz tuzsiz bo‘lmasin.

14 Agar Egamizga ilk hosilingizdan don nazri keltirmoqchi bo‘lsangiz, qovurilgan yangi bug‘doy boshoqlarini tuyib, olib keling. 15 Bu don nazri bo‘lgani uchun unga zaytun moyini qo‘shib, ustiga xushbo‘y tutatqidan qo‘ying. 16 Ruhoniy tuyilgan bug‘doyning bir qismini, ustidagi moy va hamma tutatqi bilan birga qurbongoh ustida kuydirsin. Bunday qilish nazrning hammasi Xudoga tegishli ekanini bildiradi. Egamizga atab, olovda kuydirilgan don nazri shudir.

3–BOB

Tinchlik qurbonligi

1 Agar podangizdagi birorta hayvonni tinchlik qurbonligi qilmoqchi bo‘lsangiz, nuqsonsiz sigir yoki buqani Egamiz oldiga olib keling. 2 Qo‘lingizni qurbonlikning boshiga qo‘ying, so‘ng uni Uchrashuv chodirining kiraverishida so‘ying. Horunning ruhoniy o‘g‘illari qurbonlikning qonini qurbongohning to‘rtala yon tomoniga sepib chiqishsin. 3 Siz tinchlik qurbonligining quyidagi qismlarini olovda kuydirib, Egamizga nazr qiling: ichak–chovoqlarini qoplab turgan yog‘larni, hamma charvini, 4 ikkala buyrakni, buyrak atrofidagi yog‘larini va jigarning a’lo qismini*. Jigarning a’lo qismi buyraklar bilan birga ajratib olingan bo‘lishi lozim. 5 So‘ng Horunning o‘g‘illari bularni qurbongohda, yonib turgan o‘tin ustidagi kuydiriladigan qurbonlik bilan birga kuydirsinlar. Olovda kuydirilgan bu qurbonlikdan Egamizga yoqimli hid boradi.

6 Agar Egamizga suruvingizdagi hayvonni tinchlik qurbonligi qilmoqchi bo‘lsangiz, nuqsonsiz urg‘ochi yoki erkak jonivorni olib keling. 7 Qo‘yni qurbonlik qilmoqchi bo‘lsangiz, uni Egamiz oldiga olib kelib, 8 qo‘lingizni qurbonlikning boshiga qo‘ying. So‘ng uni Uchrashuv chodiri oldida so‘ying. Horunning o‘g‘illari qurbonlikning qonini qurbongohning to‘rtala yon tomoniga sepib chiqishsin. 9 Siz tinchlik qurbonligining quyidagi qismlarini olovda kuydirib, Egamizga nazr qiling: dumg‘azadan boshlab kesib olingan dumbasini, ichak–chovoqlarini qoplab turgan yog‘larni, hamma charvini, 10 ikkala buyrakni, buyrak atrofidagi yog‘larini va jigarning a’lo qismini. Jigarning a’lo qismi buyraklar bilan birga ajratib olingan bo‘lishi lozim. 11 Ruhoniy bularni taom nazri sifatida qurbongoh ustida kuydirsin. Egamizga keltirilib, olovda kuydiriladigan qurbonlik shudir.

12 Agar Egamizga echkini qurbonlik qilmoqchi bo‘lsangiz, uni Egamizning oldiga olib keling. 13 Qo‘lingizni echkining boshiga qo‘yib, uni Uchrashuv chodiri oldida so‘ying. So‘ng Horunning o‘g‘illari echkining qonini qurbongohning to‘rtala yon tomoniga sepib chiqishsin. 14 Siz qurbonlikning quyidagi qismlarini olovda kuydirib Egamizga nazr qiling: ichak–chovoqlarini qoplab turgan yog‘larni, hamma charvini, 15 ikkala buyrakni,

buyrak atrofidagi yog‘larini va jigarning a’lo qismini. Jigarning a’lo qismi buyraklar bilan birga ajratib olingan bo‘lishi lozim. 16 So‘ng ruhoniy bularning hammasini taom nazri sifatida qurbongoh ustida kuydirsin. Olovda kuydirilgan bu qurbonlikdan Egamizga yoqimli hid boradi.

Yog‘ning hammasi Egamizga tegishlidir. 17 Yog‘ va qonni tanovul qilmang. Qayerda yashashingizdan qat’i nazar, butun avlodingiz bu qonunga doimo rioya qilsin.

4–BOB

Bilmasdan qilingan gunoh uchun nazrlar

1 Egamiz Muso orqali 2 Isroil xalqiga quyidagi qoidalarni berdi: agar birorta odam Egamizning amriga ko‘ra taqiqlangan biror ishni bilmasdan qilib qo‘yib, gunoh orttirib olsa, quyidagicha ish tutsin: 3 moy surtib tanlangan ruhoniy gunoh qilib qo‘ysa, u butun xalqni aybdor qilib qo‘ygan bo‘ladi. U qilgan gunohi uchun nuqsonsiz buqani gunoh qurbonligi sifatida Egamizga keltirsin. 4 Buqani Uchrashuv chodiri kiraverishiga olib kelib, qo‘lini buqaning boshiga qo‘ysin. So‘ng buqani o‘sha yerda — Egamizning huzurida so‘ysin. 5 Moy surtib tanlangan ruhoniy buqaning qonidan olib, Uchrashuv chodiriga olib kirsin. 6 U barmog‘ini qonga botirib, qonni Egamizning huzurida, Eng muqaddas xonani to‘sib turgan ichki parda tomonga yetti marta sachratsin. 7 So‘ng qonni Egamizning huzurida Uchrashuv chodiridagi xushbo‘y tutatqi qurbongohining shoxlariga* surtsin. Buqaning ortgan qonini esa Uchrashuv chodiriga kiraverishdagi qurbonlik kuydiriladigan qurbongohning yoniga to‘ksin. 8 Gunoh qurbonligi qilingan buqaning hamma yog‘larini ajratib olsin: ichak–chovoqlarini qoplab turgan yog‘larni, hamma charvini, 9 ikkala buyrakni, buyrak atrofidagi yog‘larni va jigarning a’lo qismini*. Jigarning a’lo qismi buyraklar bilan birga ajratib olingan bo‘lishi lozim. 10 Tinchlik qurbonligining yog‘lari qanday ajratib olinsa, gunoh qurbonligining yog‘lari ham shu usulda ajratib olinsin. Ruhoniy yog‘larni qurbonlik kuydiriladigan qurbongoh ustida kuydirsin. 11 Buqaning qolgan qismlarini: terisini, go‘shtini, kallasini, oyoqlarini va ichak–chovoqlarini 12 qarorgohning tashqarisidagi kul to‘kiladigan halol joyga olib chiqib, o‘tinlar ustida kuydirsin.

13 Agar butun jamoa Egamizning amriga ko‘ra taqiqlangan biror ishni bilmasdan qilib, gunoh orttirib olsa, ular bundan xabarsiz bo‘lgan taqdirda ham, baribir aybdor bo‘ladilar. 14 Qilgan gunohlari fosh bo‘lgandan keyin, ular butun jamoa nomidan gunoh qurbonligi qilish uchun buqani Uchrashuv chodiri oldiga olib kelishsin. 15 Jamoa oqsoqollari buqaning boshiga qo‘llarini qo‘yib, uni o‘sha yerda — Egamizning huzurida so‘yishsin. 16 Moy surtib tanlangan ruhoniy buqaning qonidan Uchrashuv chodiriga olib kirsin. 17 U barmog‘ini qonga botirib, qonni Egamizning huzurida ichki parda tomonga yetti marta sachratsin. 18 So‘ng Egamizning huzurida turgan Uchrashuv chodiridagi tutatqi qurbongohining shoxlariga qondan surtsin. Buqaning qolgan qonini esa Uchrashuv chodiriga kiraverishdagi qurbonlik kuydiriladigan qurbongohning yoniga to‘ksin. 19 Keyin buqaning yog‘larini ajratib olib, qurbongoh ustida kuydirsin.
20 Ruhoniyning gunohi uchun keltirilgan buqani nima qilgan bo‘lsa, bu buqani ham o‘shanday qilsin. Shu yo‘sinda ruhoniy jamoani gunohdan poklasin, shunda ularning gunohi kechiriladi. 21 So‘ng ruhoniy buqaning qolgan qismlarini qarorgohdan tashqariga olib chiqib, oldingi buqani kuydirganday kuydirsin. Jamoaning gunohi uchun

keltiriladigan qurbonlik shudir.
22 Agar hukmdor o‘z Egasi Xudoning amriga ko‘ra taqiqlangan biror ishni bilmasdan
qilib qo‘yib, gunoh orttirib olsa, u aybdor bo‘ladi. 23 Qilgan gunohi fosh bo‘lgandan keyin,
u nuqsonsiz bir takani qurbonlik qilish uchun olib kelsin. 24 So‘ng qo‘lini takaning
boshiga qo‘yib, takani Egamizning huzurida, kuydiriladigan qurbonliklar
bo‘g‘izlanadigan joyda so‘ysin. Bu gunoh qurbonligidir. 25 Ruhoniy barmog‘ini gunoh
qurbonligi qoniga botirib, qonni qurbonlik kuydiriladigan qurbongoh shoxlariga*
surtsin. Qonning qolganini esa qurbongohning yoniga to‘ksin. 26 So‘ng taka yog‘ining
hammasini tinchlik qurbonligining yog‘ini kuydirganday, qurbongoh ustida kuydirsin.
Ruhoniy shu tariqa hukmdorni gunohdan poklasin, shunda hukmdorning gunohi
kechiriladi.
27 Agar jamoa a’zosi Egamizning amriga ko‘ra taqiqlangan biror ishni bilmasdan qilib
qo‘yib, gunoh orttirib olsa, u aybdor bo‘ladi. 28 Qilgan gunohi fosh bo‘lgandan keyin,
nuqsonsiz echkini qurbonlik qilish uchun olib kelsin. 29 U qo‘lini gunoh qurbonligining
boshiga qo‘ysin, so‘ng uni kuydiriladigan qurbonliklar bo‘g‘izlanadigan joyda so‘ysin.
30 Ruhoniy barmog‘ini qurbonlikning qoniga botirib, qonni qurbonlik kuydiriladigan
qurbongoh shoxlariga surtsin. Qonning qolganini esa qurbongohning yoniga to‘ksin.
31 Tinchlik qurbonligining yog‘i ajratib olinganday, echkining yog‘larini ajratib olsin.
Egamizga yoqimli hid borishi uchun yog‘ni qurbongoh ustida kuydirsin. Shu tariqa
ruhoniy gunoh qilgan odamni gunohidan poklasin, shunda o‘sha odamning gunohi
kechiriladi.
32 Agar jamoa a’zosi qo‘yni gunoh qurbonligi qilmoqchi bo‘lsa, nuqsonsiz sovliqni
olib kelsin. 33 U qo‘lini gunoh qurbonligining boshiga qo‘ysin, so‘ng uni kuydiriladigan
qurbonliklar bo‘g‘izlanadigan joyda so‘ysin. 34 Ruhoniy o‘z barmog‘ini gunoh
qurbonligining qoniga botirib, qonni qurbonlik kuydiriladigan qurbongoh shoxlariga
surtsin. Qolgan qonni esa qurbongohning yoniga to‘ksin. 35 Tinchlik qurbonligi qilingan
qo‘yning yog‘i qanday ajratib olinsa, bu qurbonlikning ham yog‘larini xuddi shunday
qilib ajratib olsin. So‘ng bularni qurbongoh ustida, Egamizga keltirilgan nazrlar bilan
birga olovda kuydirsin. Shu tariqa ruhoniy gunoh qilgan odamni gunohdan poklasin,
shunda uning gunohi kechiriladi.

5–BOB

Bilmasdan qilingan gunohlar

1 Quyidagi vaziyatlarda gunoh qurbonligi keltirilishi shart: agar orangizdagi biror
kishi guvohlik berish uchun mahkamaga chaqirilsa–yu, ko‘rgan yoki bilgan hodisa
haqida guvohlik berishdan bo‘yin tovlasa, u jazoga tortilsin. 2 Birontangiz harom
narsaga — yovvoyi hayvonning, chorvaning yoki sudralib yuruvchining murdasiga qo‘l
tekkizsangiz–u, harom bo‘lganingizni bilmasangiz, siz baribir aybdor hisoblanasiz.
3 Bordi–yu, insonning biror nopokligiga qo‘l tekkizsangiz–u, harom bo‘lganingizni
bilmasangiz, qilib qo‘ygan ishingizni anglaganingizdan keyin aybdor hisoblanasiz. 4 Agar
birortangiz bilmay turib, shoshilganingizdan yaxshi yoki yomon niyatda qasam ichib
qo‘ysangiz, qilib qo‘ygan ishingizni anglaganingizdan keyin aybdor hisoblanasiz.
5 Aytilganlarning birortasida o‘zingizni aybdor deb topsangiz, qilgan gunohingizni e’tirof
eting. 6 Qilgan gunohingizning to‘lovi sifatida suruvingizdagi qo‘y yoki echkini Egamizga

gunoh qurbonligi qilish uchun olib keling. Ruhoniy qurbonlik qilib, sizni gunohdan poklasin.

7 Bordi–yu, qo‘yni qurbonlik qilishga qurbingiz yetmasa, gunohingiz to‘lovi sifatida ikkita kaptar yoki ikkita musichani Egamizga olib keling. Qushning bittasi gunoh qurbonligi, ikkinchisi kuydiriladigan qurbonlik qilinsin. 8 Qushlarni ruhoniyga olib keling. Ruhoniy qushlardan birini gunoh qurbonligi uchun olib, qushning bo‘ynini qayirib sindirsin, lekin boshini uzib tashlamasin. 9 So‘ng gunoh qurbonligining qonidan qurbongohning yon tomoniga sepsin, qonning qolganini esa qurbongohning yoniga to‘ksin. Bu gunoh qurbonligidir. 10 Qushning ikkinchisini esa qoidaga binoan kuydiriladigan qurbonlik qilsin. Shu tariqa ruhoniy sizni gunohingizdan poklaydi, qilgan gunohingiz kechiriladi.

11 Ikkita kaptar yoki ikkita musichani qurbonlik qilishga qurbingiz yetmasa, qilgan gunohingiz uchun to‘rt kosa* sifatli unni gunoh nazri uchun olib keling. Unga zaytun moyidan qo‘shmang, ustiga xushbo‘y tutatqidan ham qo‘ymang, zotan, bu gunoh uchun keltiriladigan nazrdir. 12 Nazringizni ruhoniyga olib keling. Ruhoniy unning bir hovuchini olib, Egamizga atab, olovda kuydiriladigan nazrlar bilan birga qurbongoh ustida kuydirsin. Bunday qilish, unning hammasi Xudoga tegishli ekanini bildiradi. 13 Shu tariqa ruhoniy sizni qilgan har qanday gunohingizdan poklaydi, shunda gunohingiz kechiriladi. Gunoh nazrining ortib qolgan qismi don nazri singari, ruhoniyga tegishlidir.

Zararni qoplaydigan qurbonliklar

14 Egamiz Musoga quyidagi qoidalarni berdi: 15 agar birortangiz bilmagan holda gunoh qilib, ehsonlarga oid ko‘rsatmalarni buzib qo‘ysangiz, ayb qurbonligini keltiring. Ayb qurbonligi sifatida Egamizga nuqsonsiz bir qo‘chqorni yoki qo‘chqorning qiymatiga yarasha kumushni olib keling*. Bu ayb qurbonligidir. 16 Ehsonlarga keltirgan zararni qoplashingiz uchun ruhoniyga tovon to‘lang. Buning ustiga ehson qiymatining beshdan bir qismini qo‘shib bering. Ruhoniy qo‘chqorni ayb qurbonligi qilib, sizni gunohingizdan poklaydi, shunda gunohingiz kechiriladi.

17 Agar birortangiz Egamizning amriga ko‘ra taqiqlangan biror ishni bilmasdan qilib qo‘yib, gunoh orttirib olsangiz, qilgan ishingizni anglaganingizdan keyin jazoga loyiq hisoblanasiz. 18 Bunday holda ruhoniyga ayb qurbonligi sifatida nuqsonsiz bir qo‘chqorni yoki qo‘chqorning qiymatiga yarasha kumushni olib keling. Ruhoniy sizni gunohingizdan poklaydi, shunda bilmasdan qilib qo‘ygan gunohingiz kechiriladi. 19 Bu ayb qurbonligidir. Siz haqiqatan ham, Egamizning oldida aybli ish qilib qo‘ygan edingiz.

6–BOB

1 Egamiz Musoga quyidagi qoidalarni berdi: 2 agar birortangiz Egamizga xiyonat qilsangiz, ya’ni sizga omonatga berilgan yoki garovga qo‘yilgan narsa borasida qo‘shningizni aldasangiz, yoki qo‘shningizning biror narsasini o‘g‘irlasangiz, yoki tovlamachilik qilsangiz, 3 yoki yo‘qolgan narsani topib olib, topmadim, deb aytsangiz, yoki qasam ichib turib yolg‘on guvohlik bersangiz, siz gunoh qilgan bo‘lasiz. 4 Gunoh qilib, aybingizni tan olganingizdan keyin o‘g‘irlagan, tovlamachilik qilib qo‘lga kiritgan, omonatga berilgan, topib olgan, 5 yolg‘on qasam ichib o‘zingizga olib qolgan har qanday narsani egasiga qaytarib bering. Ustiga o‘sha narsaning beshdan bir qismi qiymatini

ham qo‘shib bering. 6 Bundan tashqari, ayb qurbonligi uchun Egamizga nuqsonsiz bir
qo‘chqorni yoki qo‘chqorning qiymatiga yarasha kumushni olib keling. 7 Ruhoniy
Egamiz huzurida sizni gunohdan poklaydi, shunda qilgan har qanday aybingiz
kechiriladi.

Kuydiriladigan qurbonlik keltirish qoidasi

8 Egamiz Muso orqali 9 Horun va uning o‘g‘illariga kuydiriladigan qurbonlikka oid
quyidagi qoidalarni berdi: kuydiriladigan qurbonlik qurbongoh ustida tun bo‘yi,
ertalabgacha qolsin. Qurbongoh ustidagi olov doim yonib tursin. 10 Ertasi kuni ertalab
ruhoniy zig‘ir matosidan tikilgan libosni va ichidan ishtonni kiysin. So‘ng kuydirilgan
qurbonlikning kulini qurbongoh ustidan yig‘ishtirib olsin. Kulni qurbongohning yoniga
tashlasin. 11 Keyin ustidagi liboslarni yechib, boshqa liboslarni kiysin. Kulni
qarorgohdan tashqaridagi halol joyga olib chiqib tashlasin. 12 Qurbongohdagi olov
o‘chmay doim yonib turishi shart. Har kuni ertalab ruhoniy olovga o‘tin tashlab, uning
ustiga kuydiriladigan qurbonlikni qo‘ysin. Tinchlik qurbonligining yog‘ini ham o‘sha
olovda kuydirsin. 13 Qurbongohdagi olov zinhor o‘chmasin, u muttasil yonib tursin.

Don nazri

14 Don nazr qilinganda quyidagi qoidaga rioya qilinsin: Horunning o‘g‘illari don
nazrini Egamizning huzuriga, qurbongoh oldiga olib kelishsin. 15 Ruhoniy zaytun moyi
qo‘shilgan sifatli unning bir hovuchini va ustidagi xushbo‘y tutatqining hammasini olib,
qurbongoh ustida kuydirsin. Bunday qilish unning hammasi Xudoga tegishli ekanini
bildiradi. Bu nazrdan Egamizga yoqimli hid boradi. 16 Unning qolganidan xamirturushsiz
nonlar yopilsin. Horun va uning o‘g‘illari bu nonlarni muqaddas joyda yesinlar. Nonlar
Uchrashuv chodirining hovlisida tanovul qilinishi lozim. 17 Unga xamirturush
qo‘shilmasin. Egamizga atab, olovda kuydiriladigan nazrlardan ularga beriladigan ulush
shudir. U gunoh qurbonligi va ayb qurbonligi singari, g‘oyat muqaddasdir. 18 Horunning
naslidan bo‘lgan har bir erkak zoti bu nazrdan yesa bo‘ladi. Egamizga atab, olovda
kuydiriladigan nazrlardan Horunning nasliga avlodlar osha berilgan doimiy ulush
shudir. Bu nazrga tekkan har qanday narsa muqaddas bo‘ladi*.

19 Egamiz Muso orqali yana quyidagi qoidalarni berdi: 20 Horun va uning o‘g‘illari
ruhoniylikka tayinlangan kuni Egamizga don nazrini keltirishsin. Bu nazrning miqdori,
kundalik nazrday, to‘rt kosa* sifatli undan tashkil topsin. Unning ikki kosasi ertalab, ikki
kosasi kechqurun nazr qilinsin. 21 Undan zaytun moyiga xamir qorilsin, so‘ng tovada
qovurilsin. Qovurilgan xamir moyga yaxshilab bo‘ktirilgan bo‘lsin, uni burdalab
Egamizga nazr qiling. Bu nazrdan Egamizga yoqimli hid boradi. 22 Boshiga moy surtilib,
ruhoniylikka tayinlanadigan Horunning o‘g‘li bu nazrni tayyorlasin. Bu turdagi nazr har
bir ruhoniylikka tayinlash marosimida Egamizga keltirilsin. Nazrni butunlay kuydirish
lozim. 23 Xullas, ruhoniy keltirgan har qanday don nazri butunlay kuydirilsin, uni yeyish
mumkin emas.

Gunoh qurbonligi

24 Egamiz Muso orqali 25 Horun va uning o‘g‘illariga gunoh qurbonligiga oid quyidagi
qoidalarni berdi: gunoh qurbonligi qilinadigan jonivor Egamizning huzurida,
kuydiriladigan qurbonlik bo‘g‘izlanadigan joyda bo‘g‘izlansin. Bu g‘oyat muqaddas
qurbonlikdir. 26 Gunoh qurbonligini keltirgan ruhoniy qurbonlik go‘shtidan tanovul
qilsin. Qurbonlik go‘shti muqaddas joyda, ya’ni Uchrashuv chodirining hovlisida

yeyilishi lozim. 27 Qurbonlik go‘shtiga tekkan har qanday narsa muqaddas bo‘ladi*. Agar qurbonlikning qoni kiyimga sachrasa, kiyim muqaddas joyda yuvilsin. 28 Go‘sht pishirilgan sopol idish sindirilsin*. Bordi–yu, go‘sht bronza qozonda pishirilgan bo‘lsa, qozonni ishqalab yuvish lozim. 29 Ruhoniylar urug‘iga mansub har bir erkak zoti bu qurbonlik go‘shtidan tanovul qilsa bo‘ladi. Bu qurbonlik g‘oyat muqaddasdir. 30 Bordi–yu, gunoh qurbonligining qoni Uchrashuv chodirining ichiga, gunohdan poklash uchun Muqaddas xonaga olib kirilsa, bunday qurbonlik go‘shtini* tanovul qilish mumkin emas. Uni butunlay kuydirish lozim.

7–BOB

Ayb qurbonligi

1 Ayb qurbonligi g‘oyat muqaddasdir. Uni keltirganda quyidagi qoidaga rioya
qilinsin: 2 ayb qurbonligi uchun keltiriladigan jonivorni kuydiriladigan qurbonlik
bo‘g‘izlanadigan joyda so‘yishsin. Uning qonini qurbongohning to‘rtala yon tomoniga
sepib chiqishsin. 3 Jonivor yog‘ining hammasi keltirilsin: dumbasi, ichak–chovoqlarini
qoplab turgan yog‘lari, 4 ikkala buyragi, buyrak atrofidagi yog‘lari va jigarning a’lo
qismi*. Jigarning a’lo qismi buyraklar bilan birga ajratib olinsin. 5 Ruhoniy bularni
olovda kuydirib, Egamizga nazr qilsin. Bu ayb qurbonligidir. 6 Ruhoniylar urug‘iga
mansub bo‘lgan har bir erkak zoti qurbonlikni tanovul qilsa bo‘ladi. Uni muqaddas joyda
tanovul qilishsin*, chunki bu qurbonlik g‘oyat muqaddasdir.

7 Ayb qurbonligi uchun ham, gunoh qurbonligi uchun ham qoida bir: qurbonlikning
go‘shti gunohdan poklash marosimini olib borgan ruhoniyga tegishli bo‘lsin. 8 Birovning
kuydiriladigan qurbonligini keltirgan ruhoniy o‘ziga qurbonlikning terisini olsin.
9 Tandirda yopilgan, qozonda yoki tovada tayyorlangan har qanday don nazri ham, uni
keltirgan ruhoniyga tegishli bo‘lsin. 10 Lekin boshqa turdagi don nazrlari, zaytun moyi
aralashtirilgan yoki aralashtirilmaganidan qat’i nazar, Horunning hamma o‘g‘illariga
birday tegishli bo‘lsin.

Tinchlik qurbonligi

11 Egamizga tinchlik qurbonligini keltirganingizda quyidagi qoidaga rioya qiling:
12 agar qurbonlikni shukrona aytish uchun keltirayotgan bo‘lsangiz, qurbonlik bilan
birga zaytun moyi aralashtirilgan xamirturushsiz nonlarni, zaytun moyi surtilgan
xamirturushsiz chalpaklarni hamda sifatli un va zaytun moyidan qorib tayyorlangan
kulchalarni keltiring. 13 Shukrona qurbonligi qatorida xamirturushli nonlarni ham olib
keling. 14 Nonlarning har bir turidan bittasini Egamizga hadya sifatida taqdim qiling. Bu
nonlar tinchlik qurbonligi qonini qurbongohga sepgan ruhoniyniki bo‘lsin. 15 Shukrona
aytish uchun keltirilgan tinchlik qurbonligining go‘shtini o‘sha kuniyoq tanovul qiling.
Qurbonlik go‘shtidan ertalabgacha qoldirmang.

16 Bordi–yu, qurbonlikni ichgan ontingiz bo‘yicha keltirsangiz, yoki ko‘ngildan
chiqarib bersangiz, go‘shtini qurbonlik qilgan kuningiz va qolganini ikkinchi kuni ham
yesangiz bo‘ladi. 17 Uchinchi kuni esa qurbonlikning qolgan hamma go‘shtini kuydirib
tashlang. 18 Agar qilgan tinchlik qurbonligingizning go‘shti uchinchi kuni tanovul qilinsa,
qurbonligingiz qabul bo‘lmaydi va hisobga o‘tmaydi. Qurbonligingiz bulg‘angan
hisoblanib, uning go‘shtidan yegan odam jazoga tortiladi.

19 Har qanday nopok narsaga tekkan qurbonlik go‘shti yeyilmasin. Uni kuydirib

tashlang. Go‘shtning qolganini esa har bir pok odam tanovul qilishi mumkin. 20 Bordi–
yu, biror odam harom bo‘la turib, Egamizga keltirilgan tinchlik qurbonligining
go‘shtidan yesa, o‘z xalqi orasidan yo‘q qilinsin. 21 Agar birortangiz odamning
nopokligiga, harom hayvonga yoki har qanday jirkanch jonzotga tegib, Egamizning
tinchlik qurbonligi go‘shtidan tanovul qilsangiz, xalqingiz orasidan yo‘q qilinasiz.
22 Egamiz Muso orqali 23 Isroil xalqiga quyidagi qoidalarni berdi: mol, qo‘y va
echkining yog‘ini aslo yemang. 24 Harom o‘lgan yoki yovvoyi hayvon g‘ajib tashlagan
jonivorning yog‘ini har qanday ehtiyojlarga ishlatishingiz mumkin, lekin uni aslo
tanovul qilmang. 25 Bordi–yu, birortangiz Egamizga atab, olovda kuydiriladigan
qurbonlikning yog‘idan yesangiz, xalqingiz orasidan yo‘q qilinasiz. 26 Qush yoki
hayvonning qonini iste’mol qilmang. Qayerda yashashingizdan qat’i nazar, bu amrimga
rioya qiling. 27 Bordi–yu, birortangiz qon iste’mol qilsangiz, xalqingiz orasidan yo‘q
qilinasiz.
28 Egamiz Muso orqali 29 Isroil xalqiga quyidagi qoidalarni berdi: tinchlik
qurbonligini keltirganingizda, qurbonlikning bir qismini Egamizga taqdim qiling.
30 Olovda kuydiriladigan bu nazrni o‘z qo‘lingiz bilan olib keling. Qurbonlikning yog‘i va
to‘shini keltiring. To‘shni Egamizga bag‘ishlaganingizni ko‘rsatish uchun yuqoriga
ko‘taring. 31 Ruhoniy yog‘ni qurbongoh ustida kuydirsin, to‘sh esa Horun va uning
o‘g‘illariniki bo‘lsin. 32 Tinchlik qurbonligining o‘ng sonini ruhoniyga hadya qiling.
33 Qurbonlikning qonini keltirgan va yog‘ini kuydirgan Horunning o‘g‘liga o‘shani ulush
qilib bering. 34 Zotan, Isroil xalqi qilgan tinchlik qurbonligining yuqoriga ko‘tarilgan
to‘shini va hadya qilingan sonini Egamiz Horunga va uning o‘g‘illariga berdi. Bu Isroil
xalqidan ularga beriladigan doimiy ulushdir.
35 Horun va uning o‘g‘illari Egamiz huzurida ruhoniy bo‘lib xizmat qilishlari uchun
tayinlangan kundan boshlab, olovda kuydiriladigan qurbonliklardan ularga tegadigan
ulush ana shudir. 36 Horun va uning o‘g‘illariga moy surtilgan kuni Isroil xalqi bu ulushni
ularga berishini Egamiz amr etdi. Avlodlar osha bu ularning doimiy ulushidir.

37 Xullas, kuydiriladigan qurbonlik, don nazri, gunoh qurbonligi, ayb qurbonligi,
ruhoniylikka tayinlash marosimida keltiriladigan qurbonlik va tinchlik qurbonligiga oid
qoidalar shulardan iboratdir. 38 Muso Isroil xalqi bilan Sinay tog‘i yon bag‘ridagi sahroda
turgan paytlarida Egamiz ularga bu qurbonliklarni keltira boshlashni buyurgan edi.

8–BOB

Horun va uning o‘g‘illari ruhoniy qilib tayinlanadilar

1 Egamiz Musoga dedi: 2 “Horun va uning o‘g‘illarini Uchrashuv chodiri kiraverishiga
olib kel, ular bilan birga ruhoniylik liboslarini, muqaddas qiladigan moyni*, gunoh
qurbonligi uchun buqani, ikkita qo‘chqorni va bir savat xamirturushsiz nonni olib kel.
3 So‘ng butun jamoani o‘sha yerga to‘pla.”
4 Muso Egamizning aytganini qildi. Jamoa Uchrashuv chodiriga kiraverishda
to‘plangach, 5 Muso ularga dedi: “Men hozir Egam bergan amrni bajaraman.”
6 Muso Horun va uning o‘g‘illarini oldinga chiqarib yuvintirdi. 7 So‘ng Horunning
ustiga ko‘ylakni kiydirib, beliga belbog‘ni bog‘ladi. Ustidan ridoni kiydirib, efodni taqdi.
So‘ng beliga efodning nafis naqshinkor kamarini bog‘lab, efodni mahkamladi. 8 Ko‘ksiga

koʻkrakpech* taqib, koʻkrakpech xaltasining ichiga Urim va Tummimni* soldi.
9 Horunning boshiga sallani kiydirdi. Egamizning Musoga bergan amriga binoan
sallaning old tomoniga oltin lavhani oʻrnashtirdi, bu lavha Horun Egamizga
bagʻishlanganini bildirar edi.
10 Soʻng Muso Muqaddas chodirga va uning ichidagi hamma ashyolarga muqaddas
qiladigan moydan surtib chiqib, ularni muqaddas qildi. 11 Qurbongoh ustiga moydan
yetti marta sachratdi. Soʻng qurbongohga, qurbongoh buyumlariga, qoʻlyuvgichga va
qoʻlyuvgich tagligiga moydan surtib, ularni muqaddas qildi. 12 U Horunning boshiga ham
muqaddas qiladigan moydan surtib, Horunni Egamizning xizmatiga bagʻishladi. 13 Soʻng
Egamizning amriga koʻra, Horunning oʻgʻillarini oldinga chiqarib, ularning ustiga
koʻylaklar kiydirdi, bellariga belbogʻlar, boshlariga peshanabogʻlar bogʻladi.
14 Keyin Muso gunoh qurbonligi qilinadigan buqani yetaklab keldi. Horun va uning
oʻgʻillari qoʻllarini buqaning boshiga qoʻyishdi. 15 Muso buqani soʻydi. Qurbongohni
poklash uchun barmogʻini qonga botirib, qonni qurbongohning shoxlariga* surtib
chiqdi. Qonning qolganini qurbongohning yoniga toʻkdi. Shu yoʻsin u qurbongohni
poklab, Egamizga bagʻishladi. 16 Soʻng buqaning ichak–chovoqlarini qoplagan hamma
yogʻlarni, jigarning aʼlo qismini*, ikkala buyragini va buyrak atrofidagi yogʻlarini ajratib
olib, qurbongoh ustida kuydirdi. 17 Buqaning oʻzini esa terisi, goʻshti va ichak–chovoqlari
bilan birga, Egamizning amriga koʻra, qarorgohning tashqarisiga olib chiqib kuydirdi.
18 Soʻng Muso kuydiriladigan qurbonlik qilish uchun qoʻchqorni olib keldi. Horun va
uning oʻgʻillari qoʻllarini qoʻchqorning boshiga qoʻyishdi. 19 Muso qoʻchqorni soʻyib,
qonidan qurbongohning toʻrtala yon tomoniga sepib chiqdi. 20 Soʻng qoʻchqorning
tanasini boʻlaklarga boʻlib, kallasini, boʻlaklarini va yogʻini qurbongoh ustida kuydirdi.
21 Ichak–chovoqlari va oyoqlarini yuvib, qoʻchqorni butunlay qurbongoh ustida
kuydirdi. Olovda kuydirilgan bu qurbonlikdan Egamizga yoqimli hid bordi. Muso
hammasini Egamizning amriga binoan bajardi.
22 Soʻng Muso ikkinchi qoʻchqorni yetaklab keldi. Horun va uning oʻgʻillarini
ruhoniylikka tayinlash marosimida keltiriladigan qurbonlik shu edi. Horun va uning
oʻgʻillari qoʻllarini qoʻchqorning boshiga qoʻyishdi. 23 Muso qoʻchqorni soʻyib,
qoʻchqorning qonidan Horunning oʻng qulogʻi solinchagiga*, oʻng qoʻlining bosh
barmogʻiga va oʻng oyogʻining bosh barmogʻiga surtdi. 24 Soʻng Muso Horunning
oʻgʻillarini oldinga chiqarib, qoʻchqorning qonidan ularning oʻng quloqlari
solinchaklariga, oʻng qoʻllari bosh barmoqlariga va oʻng oyoqlari bosh barmoqlariga
surtdi. Qonning qolganini esa qurbongohning toʻrtala yon tomoniga sepib chiqdi. 25 U
qoʻchqorning yogʻini, chunonchi, dumbasini, ichak–chovoqlarini qoplab turgan yogʻlarni,
jigarning aʼlo qismini, ikkala buyragini, buyrak atrofidagi yogʻlarini va oʻng sonini ajratib
oldi. 26 Egamiz huzuridagi xamirturushsiz nonlar solingan savatdan* xamirturushsiz
nondan bittasini, zaytun moyi qoʻshilgan nondan bittasini va chalpakdan bittasini olib,
qoʻchqorning yogʻi va oʻng soni ustiga qoʻydi. 27 Muso bularning hammasini Horun va
oʻgʻillarining qoʻliga tutqazdi. Ular bularni Egamizga bagʻishlaganini koʻrsatish uchun
yuqoriga koʻtardilar. 28 Soʻng Muso bu nazrlarni ularning qoʻllaridan olib, qurbongoh
ustida kuydiriladigan qurbonlik bilan birga kuydirdi. Olovda kuydirilgan bu nazrlardan
Egamizga yoqimli hid bordi. Ruhoniylikka tayinlash marosimida keltirilgan nazrlar
shular edi. 29 Keyin Muso toʻshni olib, uni Egamizga bagʻishlaganini koʻrsatish uchun
yuqoriga koʻtardi. Egamizning amriga binoan ruhoniylikka tayinlanish marosimida

qurbonlik qilingan qo‘chqorning bu qismi Musoga tegadigan ulush edi.
30 Muso muqaddas qiladigan moydan va qurbongoh ustidagi qondan olib, Horunga
va uning liboslariga hamda Horunning o‘g‘illariga va ularning liboslariga sachratdi.
Shunday qilib, u Horunni va uning liboslarini hamda Horunning o‘g‘illarini va ularning
liboslarini muqaddas qildi.
31 Muso Horun va uning o‘g‘illariga dedi: “Uchrashuv chodiriga kiraverishda
qurbonlikning go‘shtini pishiringlar. Go‘shtni o‘sha yerning o‘zida, savatdagi nazr
qilingan nonlarga qo‘shib yenglar. Zotan, bu Egamizning amridir. 32 Ortib qolgan go‘sht
va nonni kuydiringlar. 33 Ruhoniylikka tayinlash marosimi tamom bo‘lgunga qadar, yetti
kun davomida Uchrashuv chodiri kiraverishidan jilmanglar. 34 Biz bugungi marosimni
Egamizning amriga ko‘ra, sizlarni gunohdan poklash uchun ado etdik. 35 Sizlar
Uchrashuv chodiriga kiraverishda kechayu kunduz yetti kun davomida bo‘lib,
Egamizning barcha talablarini bajaringlar. Shunda nobud bo‘lmaysizlar. Egamizning
amri shudir.”
36 Horun va uning o‘g‘illari Egamizning Muso orqali bergan hamma amrlarini
bajardilar.

9–BOB

Horun qurbonliklar keltiradi

1 Sakkizinchi kuni Muso Horunni, uning o‘g‘illarini va Isroil oqsoqollarini chaqirtirib
keldi. 2 U Horunga dedi: “Gunoh qurbonligi uchun bir nuqsonsiz buzoqni, kuydiriladigan
qurbonlik uchun esa bir nuqsonsiz qo‘chqorni Egamizning huzuriga olib kel.
3 So‘ng Isroil xalqiga ayt, ular ham gunoh qurbonligi uchun bitta takani,
kuydiriladigan qurbonlik uchun bir yoshli nuqsonsiz buzoqni va bir yoshli nuqsonsiz
qo‘zini, 4 tinchlik qurbonligi uchun bitta buqani va bitta qo‘chqorni olib kelishsin. Ular
bu jonivorlarni Egamizning huzurida qurbonlik qilishsin. Bular bilan birga zaytun moyi
aralashtirilgan don nazrini ham keltirishsin. Zotan, Egamiz bugun ularga zohir bo‘ladi.”
5 Ular Muso amr qilgan hamma narsani Uchrashuv chodirining oldiga olib kelishdi.
Butun jamoa Egamiz huzuriga kelib turdi. 6 Muso dedi: “Egamizning bergan bu amrini
ado eting, shunda Egamizning ulug‘vorligi sizlarga zohir bo‘ladi.”
7 So‘ng Muso Horunga dedi: “Qurbongohning oldiga bor, o‘zingni va xalqni gunohdan
poklash uchun gunoh qurbonligingni va kuydiriladigan qurbonligingni keltir. So‘ng
xalqning qurbonliklarini ado etib, ularni gunohdan pokla. Egamizning amri shudir.”
8 Horun qurbongoh yoniga bordi, o‘z gunohlari uchun gunoh qurbonligi sifatida
keltirgan buzoqni so‘ydi. 9 O‘g‘illari Horunga qurbonlikning qonidan olib tutdilar. U
barmog‘ini qonga botirib, qurbongohning shoxlariga* surtib chiqdi, qonning qolganini
esa qurbongohning yoniga to‘kdi. 10 So‘ng Egamiz Musoga bergan amrga binoan gunoh
qurbonligining yog‘ini, ikkala buyragini va jigarning a’lo qismini* qurbongoh ustida
kuydirdi. 11 Go‘shti va terisini esa qarorgohdan tashqariga olib chiqib kuydirib tashladi.
12 Keyin Horun kuydiriladigan qurbonlikni so‘ydi. Horunning o‘g‘illari unga qurbonlik
qonidan tutdilar. Horun qonni qurbongohning to‘rtala yon tomoniga sepib chiqdi.
13 So‘ng o‘g‘illari kuydiriladigan qurbonlikning bo‘laklari va kallasini Horunga birin–
ketin berdilar. Horun bularning hammasini qurbongoh ustida kuydirdi. 14 So‘ng
qurbonlikning ichak–chovoqlarini va oyoqlarini yuvib, kuydirilgan qurbonlik ustida

kuydirdi.
15 Keyin Horun xalqning qurbonliklarini keltirdi. O‘zining gunohi uchun qurbonlik
qilgani singari, xalqning gunohi uchun ham takani so‘yib, qurbonlik qildi.
16 Kuydiriladigan qurbonlikni ham olib kelib, qoidaga ko‘ra, ado etdi. 17 So‘ng don nazrini
keltirib, nazrning bir hovuchini qurbongoh ustida kuydirdi. Bular ertalab kuydiriladigan
kundalik nazrdan tashqari edi.
18 Horun xalqning tinchlik qurbonligi uchun keltirgan buqa va qo‘chqorni so‘ydi.
Uning o‘g‘illari tinchlik qurbonligining qonidan olib, Horunga tutdilar. Horun qonni
qurbongohning to‘rtala yon tomoniga sepib chiqdi. 19 So‘ng Horunning o‘g‘illari buqa va
qo‘chqorning yog‘ini, ya’ni dumbasini, ichaklarini qoplab turgan yog‘larini, buyraklari va
jigarning a’lo qismini 20 to‘shlar ustiga qo‘ydilar. Horun yog‘ni qurbongoh ustida
kuydirdi. 21 Muso amr qilganday, Horun buqa va qo‘chqorning to‘shlarini va o‘ng
sonlarini Egamizga bag‘ishlaganini ko‘rsatish uchun yuqoriga ko‘tardi.
22 Shundan keyin Horun qo‘llarini xalq tomon cho‘zib ularni duo qildi. Horun gunoh
qurbonligini, kuydiriladigan qurbonlikni va tinchlik qurbonligini ado etgach,
qurbongohdan pastga tushdi. 23 Muso bilan Horun Uchrashuv chodiriga kirishdi,
Chodirdan qaytib chiqqanlaridan keyin xalqni duo qilishdi. Shunda Egamizning
ulug‘vorligi xalqqa zohir bo‘ldi. 24 Egamizning huzuridan olov chiqib, qurbongoh
ustidagi kuydiriladigan qurbonlikni va yog‘larni yamlab yubordi. Xalq buni ko‘rgach,
hayqirib yubordi–da, yerga muk tushdi.

10–BOB

Nadov va Abihuning gunohi

1 Horunning o‘g‘illari Nadov va Abihu o‘z olovkuraklarini olib, ichiga cho‘g‘ soldilar,
cho‘g‘ ustiga xushbo‘y tutatqi tashladilar. Ular Egamiz amr etmagan begona olovni
Uning huzuriga olib kirdilar. 2 To‘satdan Egamizning huzuridan olov otilib chiqib, ularni
kuydirib yubordi. Ikkovi ham o‘sha yerda, Egamizning huzurida halok bo‘ldilar. 3 Shunda
Muso Horunga dedi:
— Egamizning, “Yonimda bo‘lganlar orqali Men muqaddasligimni ko‘rsataman,
butun xalq oldida ulug‘lanaman”, deb aytgani mana shudir.
Horun indamadi. 4 Muso Horunning amakisi Uziyol o‘g‘illari Mishail va Elzafanni
chaqirtirib, ularga dedi: “Boringlar, qarindoshlaringizning jasadlarini Muqaddas
chodirning oldidan olib ketib, qarorgohning tashqarisiga olib chiqinglar.”
5 Mishail va Elzafan Musoning aytganini qilib, qarindoshlarining jasadlarini
ko‘ylaklaridan ushlab, qarorgoh tashqarisiga olib chiqdilar. 6 So‘ng Muso Horunga va
uning o‘g‘illari Elazar bilan Itamarga aytdi: “Qayg‘udan sochingizni to‘zitmanglar*,
liboslaringizni yirtmanglar, aks holda, sizlar ham nobud bo‘lasizlar va butun jamoa
Xudoning g‘azabiga uchraydi. Ammo qarindoshlaringiz, butun Isroil nasli Egamiz
kuydirib nobud qilgan Nadov va Abihu uchun aza tutishlari mumkin. 7 Sizlar esa
Uchrashuv chodiriga kiraverishdan nariga jilmang. Aks holda, nobud bo‘lasizlar. Sizning
ustingizga Egamizning muqaddas qiladigan moyi* surtilgan.”
Ular Musoning aytgani bo‘yicha ish tutdilar.

Ruhoniylarga berilgan nizom

8 Egamiz Horunga shunday dedi: 9 “Sen va o‘g‘illaring Uchrashuv chodiriga kirishdan

oldin sharob yoki boshqa o‘tkir ichimliklar ichmanglar. Ichsangiz, nobud bo‘lasizlar. Bu avlodlaringiz osha doimiy qonun–qoida bo‘lsin. 10 Sizlar muqaddas narsalarni oddiy narsalardan, haromni haloldan ajrata olishlaring shart. 11 Muso orqali Men aytgan hamma qonunlarni Isroil xalqiga o‘rgatishlaring lozim.”

12 Muso Horunga va uning omon qolgan o‘g‘illari Elazar bilan Itamarga dedi: “Egamizga atab, olovda kuydiriladigan don nazrlarining ortib qolganini olib, xamirturushsiz nonlar yopinglar. Bu nonlarni qurbongoh yonida tanovul qilinglar, chunki bu nazr g‘oyat muqaddasdir. 13 Egamizga atab, olovda kuydiriladigan nazrlardan senga va sening o‘g‘illaringga tegadigan ulush mana shudir. Shuning uchun buni muqaddas joyda tanovul qilinglar. Egam menga shuni amr qildi. 14 Yuqoriga ko‘tarilgan to‘sh bilan nazr qilingan sonni esa sen va sening o‘g‘il–qizlaring har qanday halol joyda tanovul qilishlaring mumkin. Bu narsalar Isroil xalqining tinchlik qurbonliklaridan senga va farzandlaringga ulush qilib berilgandir. 15 Isroil xalqi qurbonlikning olovda kuydiriladigan yog‘i bilan birga qurbonlikning to‘shi va sonini olib kelsinlar. Ular to‘sh va sonni Egamizga bag‘ishlaganini ko‘rsatish uchun yuqoriga ko‘targanlaridan keyin, bular senga va farzandlaringga beriladi. Egamizning amriga ko‘ra, sizlarga tegadigan doimiy ulush shudir.”

16 So‘ng Muso gunoh qurbonligi qilingan echki haqida so‘radi, bilsaki, u qurbonlik kuydirilib bo‘libdi. Muso Horunning qolgan ikkala o‘g‘li Elazar bilan Itamardan qattiq g‘azablanib, ularga dedi:

17 — Nimaga gunoh qurbonligining go‘shtini muqaddas joyda yemadinglar?! Bu juda muqaddas qurbonlik–ku! Axir, o‘sha qurbonlik jamoaning aybini yuvishingiz va Egamiz huzurida ularni gunohdan poklashingiz uchun sizlarga berilgan–ku! 18 Bu qurbonlikning qoni Muqaddas xonaga olib kirilmagan. Bunday qurbonlikni muqaddas joyda yenglar, deb sizlarga amr qilmaganmidim?!

19 Shunda Horun Musoga dedi:

— Mana, bugun o‘g‘illarim Egamizga gunoh qurbonligini va kuydiriladigan qurbonlikni keltirdilar. Ammo sho‘rim quridi–ku! Agar bugun gunoh qurbonligi go‘shtidan yeganimda, Egam mendan mamnun bo‘larmidi?!

20 Muso bu gapni eshitib, ma’qul topdi.

11–BOB

Halol va harom hayvonlar

1 Egamiz Muso va Horun orqali 2 Isroil xalqiga shunday dedi: “Yer yuzidagi jamiki hayvonlardan 3 ayri tuyoq va kavsh qaytaradigan har qanday hayvonni tanovul qilishingiz mumkin. 4 Lekin kavsh qaytaradigan yoki ayri tuyoq hayvonlardan quyidagilarni tanovul qilmang*: tuya kavsh qaytaradi–yu, lekin ayri tuyoq emas. U sizlar uchun haromdir. 5 Sug‘ur kavsh qaytaradi, lekin ayri tuyoq emas. U sizlar uchun haromdir. 6 Quyon kavsh qaytaradi, lekin ayri tuyoq emas. U sizlar uchun haromdir. 7 Cho‘chqa ayri tuyoq bo‘lgani bilan kavsh qaytarmaydi. U sizlar uchun haromdir. 8 Bu hayvonlarning go‘shtini yemang, ularning murdasiga qo‘l tekkizmang. Ular sizlar uchun haromdir.

9 Dengiz va daryolarda yashaydigan suzgichi va tangachalari bor har qanday jonivorni yesangiz bo‘ladi. 10 Biroq suvda yashaydigan, suzgichi va tangachalari

bo‘lmagan har qanday suzadigan va boshqa turdagi jonivorni yemang. Ulardan hazar qiling. 11 Bunday jonivorlar sizlar uchun jirkanchdir. Ularning go‘shtini og‘zingizga olmang, murdasidan hazar qiling. 12 Suzgichi va tangachalari bo‘lmagan har qanday suv jonivori sizlar uchun jirkanchdir.

13 Parrandalar orasidagi quyidagi qushlarni zinhor yemang, ulardan hazar qiling, ular sizlar uchun jirkanchdir: qumoy, boltayutar, tasqara, 14 qizil kalxat, qirg‘iy va uning zoti, 15 har qanday qarg‘a va uning zoti, 16 tuyaqush, lochin, quloqli ukki, qarchig‘ay va uning zoti, 17 yapaloq qush, baliqchi ukki, boyo‘g‘li, 18 oq boyo‘g‘li, birqozon, jo‘rchi, 19 laylak, oq qarqara va uning zoti, sassiqpopishak, ko‘rshapalak.

20 To‘rt oyog‘ida yuradigan hamma qanotli hasharotlar sizlar uchun jirkanchdir. 21 Lekin qanotli hasharotlar orasidagi, to‘rt oyoqda yuradigan ba’zilarini yeyishingiz mumkin. Oyoqlari sakrash uchun bo‘g‘inlar bilan moslangan 22 chigirtkaning hamma turini va ularning zotini yeyishingiz mumkin. 23 Boshqa hamma to‘rt oyoqli, qanotli hasharotlar sizlar uchun jirkanchdir.

24 Ba’zi hayvonlar sizlarni bulg‘aydi. Ularning o‘ligiga qo‘l tekkizsangiz, kechgacha harom bo‘lasiz. 25 Harom hayvonning murdasini ko‘targan odam kiyimlarini yuvsin. U kechgacha harom bo‘ladi. 26 Tuyoqli, lekin tuyoqlari butunlay ayrilmagan yoki kavsh qaytarmaydigan har qanday hayvon sizlar uchun haromdir. Bunday hayvonning murdasiga tekkan odam harom bo‘ladi. 27 To‘rt oyog‘ida yuradigan panjali hayvonlar ham sizlar uchun haromdir. Ularning murdasiga tekkan har bir odam kechgacha harom bo‘ladi. 28 Bunday hayvonning murdasini ko‘targan odam kiyimlarini yuvsin, u kechgacha harom bo‘ladi. Ular sizlar uchun haromdir.

29 Yerda o‘rmalab yuradigan mayda jonivorlardan sizlar uchun quyidagilar haromdir: kalamush, sichqon, echkemar va uning zoti, 30 gekkon, kulrang echkemar, oddiy kaltakesak, cho‘l kaltakesagi va buqalamun. 31 Bularning hammasi sizlar uchun haromdir. Ularning murdasiga tekkan odam kechgacha harom bo‘ladi. 32 Agar bunday jonivorning murdasi biror narsaning ustiga tushsa, o‘sha narsa harom bo‘ladi. Harom bo‘lgan bunday narsa — yog‘och, mato, charm yoki qanordan bo‘lishidan va nimaga ishlatilishidan qat’i nazar, uni suvga botirib, chayib oling. Bu narsa kechgacha harom bo‘lib, so‘ng yana halol bo‘ladi. 33 Bordi–yu, bunday jonivor o‘lib, sopol idishning ichiga tushsa, idishdagi hamma narsa harom bo‘ladi. Shunda idishning o‘zini ham sindiring. 34 Bunday idishdagi suv har qanday ovqat ustiga tushsa, ovqat ham harom bo‘ladi. Harom idishdagi har qanday ichimlik harom hisoblanadi. 35 Jonivorning murdasi tushgan hamma narsa harom bo‘ladi. Murda tandir yoki o‘choqqa tushgan bo‘lsa, shu narsalar harom hisoblanib buzib tashlansin. Ularni harom deb biling. 36 Lekin murda buloq yoki suv yig‘iladigan sardobaga tushsa, buloq va sardoba halolligicha qoladi. Ammo o‘sha jonivorning murdasiga nimaiki tegsa, bu narsa harom hisoblanadi. 37 Bordi–yu, murda ekish uchun ajratib qo‘yilgan urug‘ ustiga tushsa, urug‘ halol hisoblanadi. 38 Ammo murda suvda ivitilgan urug‘ ustiga tushsa, urug‘ harom bo‘ladi.

39 Bordi–yu, yesa bo‘ladigan hayvon o‘lsa, bunday hayvonning murdasiga tekkan odam kechgacha harom bo‘ladi. 40 Uning go‘shtidan yegan yoki murdasini ko‘targan odam kiyimlarini yuvsin. Bunday odam kechgacha harom bo‘ladi.

41 Yerda o‘rmalab yuruvchi har qanday jonivor sizlar uchun jirkanchdir. Ularni tanovul qilmang. 42 Qorni bilan sudralib yuruvchi, to‘rt oyoqli va ko‘p oyoqli jonivorlarni yemang. Ular sizlar uchun jirkanchdir. 43 Bunday jonivorlarni yeb, bulg‘anmang. Ular

tufayli o‘zingizni harom qilmang. 44 Zotan, Men Egangiz Xudoman. O‘zingizni Menga
bag‘ishlab muqaddas bo‘linglar, chunki Men muqaddasman. O‘rmalab yuradigan
jonivorlar dastidan o‘zingizni bulg‘amanglar. 45 Men Egangizman, Xudoyingiz bo‘lishim
uchun sizlarni Misrdan olib chiqqanman. Shunday ekan, Muqaddas bo‘linglar, chunki
Men muqaddasman.
46 Hayvonlar, qushlar, suvdagi turli jonivorlar va yerda sudraluvchi jonzotlarga oid
qonunlar shudir. 47 Sizlar halolni haromdan ajrata oling, yeyish mumkin bo‘lgan va
mumkin bo‘lmagan tirik jonivorlarning farqiga boring.”

12–BOB

Ko‘zi yorigan ayolning poklanishi

1 Egamiz Muso orqali 2 Isroil xalqiga quyidagi qoidalarni berdi: agar ayol homilador
bo‘lib, o‘g‘il tug‘sa, u ayol yetti kun harom hisoblanadi, hayz ko‘rgan kunlaridagi kabi,
harom bo‘ladi. 3 Sakkizinchi kuni esa o‘g‘il chaqaloq sunnat qilinsin. 4 Ayolning qondan
poklanish muddati o‘ttiz uch kun bo‘lsin. Bu muddat tugamaguncha u birorta muqaddas
narsaga tegmasligi va Muqaddas chodirga kirmasligi lozim.
5 Agar ayol qiz tug‘sa, u hayz ko‘rgandagi kabi ikki hafta davomida harom
hisoblanadi. U oltmish olti kundan keyingina qon ketishidan poklanadi.
6 O‘g‘il yoki qiz ko‘rgan ayolning poklanish muddati tugagach, u kuydiriladigan
qurbonlik qilishga bir yoshli qo‘zini va gunoh qurbonligi qilishga musichani yoki
kaptarni Uchrashuv chodiri kiraverishiga olib kelib, ruhoniyga bersin. 7 Ruhoniy
Egamizning huzurida qurbonliklarni keltirsin, shu yo‘sin ayolni nopokliklaridan
poklasin. Shundan so‘ng ayol qon ketishidan poklanadi. O‘g‘il yoki qiz ko‘rgan ayol
uchun qonun shudir. 8 Bordi–yu, qo‘zini qurbonlik qilishga ayolning qurbi yetmasa, u
ikkita kaptar yoki ikkita musichani olib kelsin. Ruhoniy birini kuydiriladigan qurbonlik,
ikkinchisini gunoh qurbonligi qilsin, shu yo‘sin ayolni nopokliklaridan poklasin. Shunda
ayol pok bo‘ladi.

13–BOB

Teri kasalligi haqida qonun

1 Muso va Horunga Egamiz quyidagi qonunlarni berdi: 2 agar birortasining badanida
teri kasalligiga* aylanishi mumkin bo‘lgan shish, toshma yoki dog‘ paydo bo‘lsa, o‘sha
odamni ruhoniy Horun yoki uning o‘g‘illaridan* biri huzuriga olib keling. 3 Ruhoniy
badandagi yarani ko‘rsin. Agar yara ustidagi tuklar oqargan va yara teri ostiga o‘tgan
bo‘lsa, bu teri kasalligidir. Ruhoniy yarani ko‘rib bo‘lishi bilanoq o‘sha odamni harom
deb e’lon qilsin.

Teridagi oq dog‘

4 Bordi–yu, odamning badanida oq dog‘ bo‘lib, teri ostiga o‘tmagan bo‘lsa va dog‘
ustidagi tuklar oqarmagan bo‘lsa, ruhoniy kasallangan odamni yetti kunga yolg‘izlatib
qo‘ysin. 5 Yettinchi kuni ruhoniy yana o‘sha odamni ko‘rsin. Agar yara o‘zgarmagan
bo‘lsa va atrofidagi teriga yoyilmagan bo‘lsa, ruhoniy o‘sha odamni yana yetti kunga
yolg‘izlatib qo‘ysin. 6 Yettinchi kuni ruhoniy uni yana ko‘rsin. Agar yara tuzala boshlagan
bo‘lib, atrofidagi teriga yoyilmagan bo‘lsa, ruhoniy u odamni pok deb e’lon qilsin. Bu

toshmadir. O‘sha odam kiyimlarini yuvsin va u pok bo‘ladi. 7 Bordi–yu, ruhoniy
tekshirib, pok deb e’lon qilgan o‘sha odamning terisidagi toshmasi yoyilib ketsa, u
qaytadan ruhoniyga ko‘rinsin. 8 Ruhoniy kasalni yana tekshirsin. Agar toshma teriga
yoyilgan bo‘lsa, ruhoniy u odamni harom deb e’lon qilsin. Bu teri kasalligidir.

Teridagi shish

9 Agar odam teri kasalligiga chalinsa, uni ruhoniy huzuriga olib keling. 10 Ruhoniy uni
tekshirsin. Agar teri ustida oq shish paydo bo‘lib, shish ustidagi tuklar oqargan bo‘lsa va
ochiq yara hosil bo‘lgan bo‘lsa, 11 bu tuzalmas teri kasalligidir. Ruhoniy u odamni harom
deb e’lon qilsin, uni yolg‘izlatib o‘tirmasin, chunki uning haromligi oydindir. 12 Bordi–yu,
teridagi toshma odamning butun tanasini boshdan–oyoq qoplab olsa, 13 ruhoniy uni
tekshirsin. Agar toshma butun tanaga yoyilgan bo‘lsa, ruhoniy uni pok deb e’lon qilsin.
Hamma teri birday oqargani uchun bunday odam pok hisoblanadi. 14 Bordi–yu, uning
badanida ochiq yara hosil bo‘lsa, o‘sha odam harom hisoblanadi. 15 Ruhoniy ochiq yarani
ko‘rsin va u odamni harom deb e’lon qilsin. Ochiq yara haromdir, bu teri kasalligining
belgisidir. 16 Lekin ochiq yara tuzalib, oqarsa o‘sha odam ruhoniyning oldiga kelsin.
17 Ruhoniy uni ko‘rsin. Agar yara haqiqatan ham oqargan bo‘lsa, ruhoniy kasal odamni
pok deb e’lon qilsin. Shunda u pok bo‘ladi.

Chipqon

18 Agar birortasining badaniga chipqon chiqib, bitgan bo‘lsa–yu, 19 lekin chipqon
o‘rnida oq shish yoki qizg‘ish–oq dog‘ paydo bo‘lsa, u odam ruhoniyga ko‘rinsin.
20 Ruhoniy uni ko‘rsin. Agar dog‘ teri ostiga o‘tgan bo‘lsa va tuklari oqarib qolgan bo‘lsa,
ruhoniy o‘sha odamni harom deb e’lon qilsin. Demak, chipqon o‘rnida teri kasalligi hosil
bo‘lgan. 21 Lekin ruhoniy uni tekshirganda, dog‘ ustidagi tuklar oqarmagan, dog‘ terining
ostiga o‘tmagan va tuzala boshlagan bo‘lsa, ruhoniy o‘sha odamni yetti kunga
yolg‘izlatib qo‘ysin. 22 Agar dog‘ teriga yoyilib ketsa, ruhoniy u odamni harom deb e’lon
qilsin. Bu teri kasalligidir. 23 Bordi–yu, dog‘ o‘zgarmasa va yoyilmasa, bu dog‘
chipqonning chandig‘i, xolos. Ruhoniy bu odamni pok deb e’lon qilsin.

Teridagi kuyuk

24 Agar birortasi kuyib qolsa va kuygan joyining rangi o‘zgarib, qizg‘ish–oq yoki
oppoq tusga kirsa, 25 ruhoniy kuygan joyni tekshirsin. Agar kuygan joy ustidagi tuklar
oqarib qolgan bo‘lsa va dog‘ teri ostiga o‘tgan bo‘lsa, demak, kuygan joy o‘rnida teri
kasalligi hosil bo‘lgan. Ruhoniy bu odamni harom deb e’lon qilsin. 26 Lekin ruhoniy uni
tekshirganda tuklar oqarmagan va dog‘ teri ostiga o‘tmagan bo‘lsa, buning ustiga dog‘
tuzala boshlagan bo‘lsa, ruhoniy u odamni yetti kunga yolg‘izlatib qo‘ysin. 27 Yettinchi
kuni ruhoniy u odamni ko‘rsin. Agar dog‘ teriga yoyilgan bo‘lsa, ruhoniy u odamni
harom deb e’lon qilsin. Bu teri kasalligidir. 28 Bordi–yu, dog‘ o‘zgarmasa va atrofdagi
teriga yoyilmasa, buning ustiga tuzala boshlagan bo‘lsa, demak, bu kuyish natijasida
paydo bo‘lgan shishdir. Ruhoniy u odamni pok deb e’lon qilsin. Bu kuygan joyning izidir.

Boshdagi yoki jag‘dagi yara

29 Agar erkak yoki ayolning boshiga yo jag‘iga yara chiqsa, 30 ruhoniy yarani
tekshirsin. Yara terining ostiga o‘tgan bo‘lsa va yara ustidagi tuklar sarg‘ayib, nimjon
bo‘lib qolgan bo‘lsa, ruhoniy o‘sha erkak yoki ayolni harom deb e’lon qilsin. Demak,
uning boshi yoki jag‘iga qichitma chiqqan, bu teri kasalligidir. 31 Agar ruhoniy qichitmani
tekshirganda yara terining ostiga o‘tmagan bo‘lsa, lekin yaraning ustida sog‘lom tuklar

bo‘lmasa, ruhoniy qichitmaga chalingan bu odamni yetti kunga yolg‘izlatib qo‘ysin.
32 Yettinchi kuni ruhoniy qichitmani yana ko‘rsin. Agar qichitma yoyilmagan bo‘lsa,
uning ustida sarg‘ish tuklar bo‘lmasa, yara terining ostiga o‘tmagan bo‘lsa, 33 kasal odam
hamma sochini qirsin, lekin qichitma bor joyiga tegmasin. So‘ng ruhoniy uni yana yetti
kunga yolg‘izlatib qo‘ysin. 34 Yettinchi kuni ruhoniy qichitmani ko‘rsin. Agar qichitma
yoyilmagan va terining ostiga o‘tmagan bo‘lsa, ruhoniy u odamni pok deb e’lon qilsin. U
odam kiyimlarini yuvsin, shunda u pok bo‘ladi. 35 Bordi–yu, ruhoniy uni pok deb e’lon
qilgandan keyin qichitma yoyilsa, 36 ruhoniy u odamni yana tekshirsin. Agar qichitma
haqiqatan ham yoyilgan bo‘lsa, sarg‘ish tukni qidirishning hojati yo‘q. U odam haromdir.
37 Bordi–yu, ruhoniyning nazarida qichitma o‘zgarmagan bo‘lsa va uning ustida qora
tuklar o‘sa boshlagan bo‘lsa, qichitma tuzalgan bo‘ladi. Ruhoniy u odamni pok deb e’lon
qilsin.

Teridagi oqish dog‘lar

38 Agar erkak yoki ayolning badanida oq dog‘lar paydo bo‘lsa, 39 ruhoniy o‘sha
odamni tekshirsin. Agar bu dog‘lar ko‘rinar–ko‘rinmas oqishroq tusda bo‘lsa, bu bor–
yo‘g‘i toshmadir. Bunday odam pokdir.

Kal bo‘lgan bosh

40 Agar odamning sochi to‘kilgan bo‘lsa, u odam kal, lekin pok hisoblanadi.
41 Boshning old tomonidagi va chakkalaridagi sochlari to‘kilgan bo‘lsa, u odam kal
bo‘lgani bilan pok hisoblanadi. 42 Bordi–yu, boshning kal joyida qizg‘ish–oq dog‘ paydo
bo‘lsa, bu teri kasalligidir. 43 Ruhoniy uni ko‘rsin. Agar shish haqiqatan teri kasalligi
singari qizg‘ish–oq tusda bo‘lsa, 44 demak, odam kasallangan, u haromdir. Boshidagi
yarasi tufayli ruhoniy uni harom deb e’lon qilsin.

Xasta odamning hayot tarzi

45 Bunday yomon teri kasalliklaridan biriga chalingan odam kiyimlarini yirtsin,
sochini to‘zitsin*, yuzining quyi qismini berkitsin. So‘ng: “Harom! Harom!” deb baqirsin.
46 U odam kasalligi davomida harom hisoblanadi. U alohida, qarorgohdan tashqarida
yashasin.

Mog‘orga oid qonunlar

47 Agar kiyimni mog‘or bossa, jun yoki zig‘ir matosidan tikilgan kiyimni, 48 jun yoki
zig‘irdan to‘qilgan matoni, charmni yo charmdan yasalgan buyumni 49 bosgan o‘sha
mog‘or ko‘kimtir yoki qizg‘ish rangda bo‘lsa, bu yoyiladigan zamburug‘dir, uni
ruhoniyga ko‘rsatish lozim. 50 Ruhoniy mog‘orni tekshirsin, so‘ng zararlangan narsani
yetti kunga qadar olib qo‘ysin. 51 Yettinchi kuni ruhoniy uni yana ko‘rsin. Agar mog‘or
kiyimga, to‘qilgan matoga yo charmdan yasalgan har qanday buyumga yoyilgan bo‘lsa,
bu yoyiladigan zamburug‘dir. Zararlangan narsa harom hisoblanadi. 52 Ruhoniy o‘sha
narsani kuydirsin. Buyum yoyiladigan zamburug‘ bilan zararlangani uchun uni kuydirib
yuborish kerak.

53 Bordi–yu, mog‘or kiyimga, matoga yoki charmga yoyilmagan bo‘lsa, 54 ruhoniy
zararlangan o‘sha narsani yuvdirsin. So‘ng uni yana yetti kunga olib qo‘ysin. 55 Ruhoniy
yuvilgan o‘sha narsani yana tekshirsin. Agar mog‘orlagan joyning rangi o‘zgarmagan
bo‘lsa, mog‘or yoyilmagan taqdirda ham harom hisoblanadi. Narsaning mog‘orlagan joyi
ichki yoki tashqi tomonida bo‘lishidan qat’i nazar, uni kuydirib yuboring.

56 Bordi–yu, ruhoniy yuvilgan narsani tekshirganda mog‘orning rangi o‘chgan bo‘lsa,

ruhoniy kiyim, mato yoki charmdagi mog‘orlagan joyni yulib olsin. 57 Agar mog‘or o‘sha
narsada yana paydo bo‘lsa, zamburug‘ yana ko‘payishni boshlagandir, narsaning egasi
uni kuydirib yuborsin. 58 Bordi–yu, yuvilgandan keyin narsadagi mog‘or ketsa, uni
ikkinchi marta yuving va u pok bo‘ladi.
59 Jun yoki zig‘ir matosidan tikilgan kiyimda, jun yoki zig‘irdan to‘qilgan matoda va
charmdan yasalgan har qanday buyumda hosil bo‘lgan zamburuqqa oid qoidalar
shulardan iboratdir. Bular sizlarga halolni haromdan ajrata olishingiz uchun xizmat
qiladi.

14–BOB

Teri kasalligidan forig‘ bo‘lgan odamning poklanishi

1 Egamiz Musoga 2 xasta odamning poklanish marosimiga oid quyidagi qoidalarni
berdi: teri kasalligidan* forig‘ bo‘lgan odamni ruhoniyning oldiga olib keling. 3 Ruhoniy
uni qarorgohdan tashqarida ko‘rsin. Agar o‘sha odam haqiqatan ham kasalligidan forig‘
bo‘lgan bo‘lsa, 4 ruhoniy uni poklash uchun ikkita halol tirik qushni, sadr yog‘ochini,
qirmizi ipni va bir tutam issop o‘tini* keltirsin. 5 Ruhoniyning amriga binoan
qushlarning bittasi yangi buloq suvi solingan sopol idish ustida bo‘g‘izlansin. 6 So‘ng
ruhoniy tirik qushni, sadr yog‘ochini, qirmizi ipni va issopni olib, buloq suvi ustida
bo‘g‘izlangan qushning qoniga botirsin. 7 Keyin qonni teri kasalligidan poklanadigan
odamning ustiga yetti marta sepsin. Ruhoniy o‘sha odamni pok deb e’lon qilsin va tirik
qushni dalaga qo‘yib yuborsin. 8 Poklanadigan odam kiyimlarini yuvsin. Hamma sochini
qirib tashlab, yuvinsin, shunda u pok bo‘ladi. Shundan keyin u qarorgohga kirsin, lekin
yetti kun davomida chodirining tashqarisida yashasin. 9 Yettinchi kuni u yana sochini,
soqolini, qoshlarini va hamma tuklarini qirsin. So‘ng kiyimlarini yuvib, o‘zi ham
yuvinsin, shunda u pok bo‘ladi.
10 Sakkizinchi kuni u ikkita nuqsonsiz qo‘chqor qo‘zini va bitta bir yoshli nuqsonsiz
urg‘ochi qo‘zini, don nazri sifatida zaytun moyi qo‘shilgan o‘n ikki kosa* sifatli unni va
bir kosa* zaytun moyini olib kelsin. 11 Poklanish marosimini olib borayotgan ruhoniy
poklanadigan odamni va uning olib kelgan qurbonligu nazrlarini Egamizning huzuriga,
Uchrashuv chodiri kiraverishiga qo‘ysin. 12 So‘ng qo‘zining bittasini bir kosa zaytun
moyi bilan birga ayb qurbonligi sifatida keltirsin. O‘sha narsalarni Egamizga
bag‘ishlaganini ko‘rsatib, yuqoriga ko‘tarsin. 13 U qo‘zini muqaddas joyda, gunoh
qurbonligi va kuydiriladigan qurbonlik bo‘g‘izlanadigan joyda so‘ysin. Ayb qurbonligi
gunoh qurbonligi singari, ruhoniyga tegishlidir. Bu qurbonlik nihoyatda muqaddasdir.
14 Ruhoniy ayb qurbonligining qonidan olib, poklanayotgan odamning o‘ng qulog‘i
solinchagiga*, o‘ng qo‘lining bosh barmog‘iga va o‘ng oyog‘ining bosh barmog‘iga
surtsin. 15 So‘ng kosadagi zaytun moyidan olib, o‘z qo‘lining chap kaftiga quysin. 16 O‘ng
qo‘lining barmog‘ini chap kaftidagi zaytun moyiga botirib, yetti marta Egamizning
huzurida sachratsin. 17 Chap kaftida qolgan zaytun moyidan poklanayotgan odamning
o‘ng qulog‘i solinchagiga, o‘ng qo‘li bosh barmog‘iga va o‘ng oyog‘i bosh barmog‘iga —
ayb qurbonligining qoni surtilgan joyga surtsin. 18 Ortib qolgan moyni esa
poklanayotgan odamning boshiga surtsin. Shu yo‘sin, ruhoniy Egamizning huzurida
poklanish marosimini o‘tkazsin.
19 Keyin ruhoniy gunoh qurbonligini keltirib, poklanish marosimini o‘tkazsin. U

kuydiriladigan qurbonlikni so‘yib, 20 don nazri bilan birga qurbongoh ustida kuydirsin.
Ruhoniy shu yo‘sin poklanish marosimini o‘tkazsin, shunda kasallikdan forig‘ bo‘lgan
odam pok bo‘ladi.
21 Bordi–yu, u odam kambag‘al bo‘lib, bularni qurbonlik qilishga qurbi yetmasa, u
poklanishi uchun yuqoriga ko‘tariladigan ayb qurbonligi sifatida bitta qo‘chqor qo‘zini,
don nazri uchun zaytun moyi qo‘shilgan to‘rt kosa* sifatli unni va bir kosa zaytun
moyini olib kelsin. 22 Bulardan tashqari, imkoniyatiga ko‘ra, ikkita kaptarni yoki ikkita
musichani olib kelsin. Biri gunoh qurbonligi, ikkinchisi kuydiriladigan qurbonlik
uchundir. 23 U shu narsalarni sakkizinchi kuni poklanish uchun Uchrashuv chodiri
kiraverishiga, Egamizning oldiga olib kelib, ruhoniyga bersin. 24 Ruhoniy ayb qurbonligi
uchun keltirilgan qo‘zini va bir kosa zaytun moyini olib, Egamizga bag‘ishlaganini
ko‘rsatish uchun Egamizning huzurida yuqoriga ko‘tarsin. 25 So‘ng qo‘zini so‘ysin,
qonidan olib, poklanayotgan odamning o‘ng qulog‘i solinchagiga, o‘ng qo‘lining bosh
barmog‘iga va o‘ng oyog‘ining bosh barmog‘iga surtsin. 26 Keyin ruhoniy chap qo‘lining
kaftiga zaytun moyidan quysin. 27 O‘ng qo‘lining barmog‘i bilan o‘sha moyni yetti marta
Egamizning huzurida sachratsin. 28 So‘ng qo‘lidagi moydan poklanayotgan odamning
o‘ng qulog‘i solinchagiga, o‘ng qo‘lining bosh barmog‘iga va o‘ng oyog‘ining bosh
barmog‘iga — ayb qurbonligining qoni surtilgan joyga surtsin. 29 Qo‘lidagi ortib qolgan
moyni poklanayotgan odamning boshiga surtsin. Shu yo‘l bilan ruhoniy poklanish
marosimini o‘tkazsin. 30 So‘ng ruhoniy kaptarlarni yoki musichalarni qurbon qilsin.
31 Bittasini gunoh qurbonligi, ikkinchisini kuydiriladigan qurbonlik qilib, don nazri bilan
birga keltirsin. Shu yo‘sin, ruhoniy Egamizning huzurida poklanish marosimini
o‘tkazsin. 32 Bu qoidalar teri kasalligidan forig‘ bo‘lgan, lekin poklanish marosimi uchun
kerakli qurbonliklarni keltirishga qurbi yetmagan odam uchundir.

Uylardagi mog‘or

33 Egamiz Muso va Horunga 34 mog‘or bosgan uylarga oid quyidagi qonunlarni berdi:
Egamiz sizlarga mulk qilib beradigan Kan’on yurtiga borganingizdan keyin sizlarga
qarashli yurtdagi uyni mog‘or bostirishi mumkin. 35 Shunda xonadon sohibi ruhoniyning
oldiga borib: “Uyimni mog‘or bosganga o‘xshaydi”, — deb aytsin. 36 Uydagi narsalar
harom deb e’lon qilinmasligi uchun, ruhoniy mog‘orni ko‘rishga kirishdan oldin, uydagi
hamma narsalarni chiqartirishni buyursin. Shundan so‘ng uyni ko‘zdan kechirish uchun
ichkariga kirib, 37 mog‘or bosgan devorlarni ko‘rsin. Agar mog‘orning ko‘kimtir yoki
qizg‘ish dog‘lari bo‘lib, devorga chuqur botib kirgan bo‘lsa, 38 ruhoniy tashqariga chiqib,
uyni yetti kunga berkitib qo‘ysin. 39 Yettinchi kuni ruhoniy qaytib kelib, uyni yana
ko‘rsin. Agar mog‘or devorga yoyilib ketgan bo‘lsa, 40 ruhoniy mog‘or yoyilgan devordagi
toshlarni ko‘chirtirib, shahar tashqarisidagi harom joyga olib borib tashlashni buyursin.
41 So‘ng uy ichkarisidagi devorlarning suvog‘ini ko‘chirtirib, shahar tashqarisidagi
harom joyga chiqartirib tashlatsin. 42 Ko‘chirib olingan toshlar o‘rniga boshqa toshlar
qo‘ydirib, uyning ichini yangidan suvoq qildirsin. 43 Agar shundan keyin ham uyni
mog‘or bossa, 44 ruhoniy kelib uyni ko‘rsin. Mog‘or devorlarga yoyilgan bo‘lsa, bu
yoyiladigan zamburug‘dir. Uy harom hisoblanadi. 45 Uy buzib tashlansin, uning tosh,
yog‘och va suvog‘ini shahar tashqarisidagi harom joyga olib chiqib tashlashsin. 46 Uy
yopiq paytida u yerga kirgan har qanday odam kechgacha harom hisoblanadi. 47 O‘sha
uyda uxlagan yoki u yerda ovqatlangan har qanday odam kiyimlarini yuvsin.

48 Bordi–yu, uy yangidan suvoq qilingandan keyin ruhoniy kelib, uyni koʻrganda
devorlarni mogʻor bosmagan boʻlsa, ruhoniy uyni pok deb e'lon qilsin. Mogʻor yoʻq
boʻlgan boʻladi. 49 Uyni poklash uchun ruhoniy ikkita qushni, sadr yogʻochini, qirmizi
ipni va bir tutam issop oʻtini olsin. 50 Qushning birini sopol idishdagi yangi buloq suvi
ustida soʻysin. 51 Soʻng sadr yogʻochini, issop tutamini, qirmizi ipni va tirik qushni olib,
ularni buloq suvi ustida boʻgʻizlangan qushning qoniga botirsin–da, uyga yetti marta
sepsin. 52 Shu yoʻl bilan uyni poklagandan keyin, 53 tirik qushni shahar chekkasiga olib
chiqib, dalaga qoʻyib yuborsin. Shu tariqa ruhoniy uy uchun poklash marosimini
oʻtkazsin, shunda uy pok boʻladi.
54 Teri kasalligiga va yoyiladigan zamburugʻlarga oid qoidalar shulardir. Bu qoidalar
teridagi qichitmaning, 55 uy va kiyimlardagi mogʻorlarning, teridagi shish, toshma yoki
dogʻlarning 56 halol yoki harom ekanligini bilish uchun xizmat qiladi.

Xullas, teri kasalligi va yoyiladigan zamburugʻlarga oid qoidalar shulardan iborat.

15–BOB

Odamni harom qiladigan narsalar

1 Egamiz Muso va Horun orqali 2 Isroil xalqiga quyidagi qoidalarni berdi: kasallik
tufayli biror erkakning jinsiy a'zosidan ajralmalar oqsa, u odam harom boʻladi. 3 Ajralma
oqishi davom etsa ham, yoʻli yopilgandan tana ichida qolsa ham, odam harom
hisoblanadi. 4 Bunday odam toʻshakka yotsa, toʻshak harom boʻladi, u oʻtirgan har
qanday joy ham harom hisoblanadi. 5 Uning toʻshagiga tekkan har qanday odam
kiyimlarini yuvsin, oʻzi ham yuvinsin, u kechgacha harom boʻladi. 6 Ajralmasi oqqan
odam oʻtirgan joyga kim oʻtirsa, kiyimlarini yuvsin, oʻzi ham yuvinsin, u kechgacha
harom boʻladi. 7 Ajralmasi oqqan odamga tekkan har kim kiyimlarini yuvsin, oʻzi ham
yuvinsin, u kechgacha harom boʻladi. 8 Ajralmasi oqqan odam pok odamga tupursa, pok
odam kiyimlarini yuvsin, oʻzi ham yuvinsin, u kechgacha harom boʻladi. 9 Ajralmasi
oqqan odam egarda oʻtirgan boʻlsa, egar harom hisoblanadi. 10 Bunday odamning
oʻtirgan narsasiga tekkan har kim kechgacha harom boʻladi. Kim oʻsha narsani koʻtarib
borsa, kiyimlarini yuvsin, oʻzi ham yuvinsin, u kechgacha harom boʻladi. 11 Ajralmasi
oqqan odam qoʻlini yuvmasdan kimga tegsa, oʻsha odam kiyimlarini yuvsin, oʻzi ham
yuvinsin, u kechgacha harom boʻladi. 12 Ajralmasi oqqan odam tekkan har qanday sopol
idish sindirib tashlansin, yogʻoch idish esa yuvilsin.
13 Ajralmasi oqqan odam kasalligidan xalos boʻlgach, yetti kun kutsin. Soʻng
kiyimlarini yuvib, buloq suvida yuvinsin va u pok boʻladi. 14 Sakkizinchi kuni u ikkita
kaptar yoki ikkita musichani Egamizning huzuriga, Uchrashuv chodiri kiraverishiga olib
kelib, ruhoniyga bersin. 15 Ruhoniy qushlarning bittasini gunoh qurbonligi, ikkinchisini
esa kuydiriladigan qurbonlik qilsin. Shu tariqa ruhoniy ajralmasi oqqan odamni
Egamizning huzurida haromligidan poklasin.
16 Agar biror erkakdan maniy oqsa, u butun badanini yuvsin. U kechgacha harom
boʻladi. 17 Maniy tekkan har qanday kiyim va charm yuvilsin, oʻsha narsalar kechgacha
harom boʻladi. 18 Erkak ayol bilan yotgandan keyin, erkakdan maniy oqsa, ikkovi ham
yuvinishsin. Ular kechgacha harom boʻladilar.
19 Ayol kishi hayz koʻrib, badanidan qon oqqanda, u yetti kun davomida harom

hisoblanadi. Unga tekkan odam ham kechgacha harom bo‘ladi. 20 Ayol haromligida
yotgan va o‘tirgan hamma narsa haromdir. 21 Uning to‘shagiga tekkan odam kiyimlarini
yuvsin, o‘zi ham yuvinsin. U kechgacha harom bo‘ladi. 22 Ayol o‘tirgan buyumga tekkan
odam ham kiyimlarini yuvib, o‘zi ham yuvinsin. U kechgacha harom bo‘ladi. 23 Bordi–yu,
ayolning to‘shagi yoki o‘tirgan buyumi ustida biron narsa bo‘lsa, o‘sha narsaga tekkan
odam ham kechgacha harom bo‘ladi. 24 Agar erkak hayz ko‘rgan ayol bilan yotsa,
ayolning haromligi erkakka o‘tgan bo‘ladi. Erkak ham yetti kun davomida harom bo‘lib,
u yotgan har bir to‘shak harom hisoblanadi.

25 Agar ayolning hayz ko‘rgan paytdan tashqari qoni kelsa va bu ahvol uzoq vaqt
davom etsa yoki hayz ko‘rgan davri cho‘zilib ketsa, qon to‘xtaguncha ayol harom
hisoblanadi. U hayz ko‘rgan kunlariday harom bo‘ladi. 26 O‘sha vaqt davomida ayol
yotgan har qanday to‘shak va o‘tirgan har qanday buyum, hayz ko‘rgan kunlariday,
harom bo‘ladi. 27 O‘sha narsalarga tekkan odam harom hisoblanadi. U kiyimlarini yuvib,
o‘zi ham yuvinsin, u kechgacha harom bo‘ladi. 28 Ayolning qoni to‘xtasa, oradan yetti kun
o‘tsin. Shundan keyin u pok bo‘ladi. 29 Sakkizinchi kuni u ikkita kaptar yoki ikkita
musichani Uchrashuv chodirining kiraverishiga olib kelib, ruhoniyga bersin. 30 Ruhoniy
qushlardan bittasini gunoh qurbonligi, ikkinchisini kuydiriladigan qurbonlik qilsin. Shu
yo‘sin ruhoniy hayz ko‘rgan ayolni Egamizning huzurida haromligidan poklasin.

31 Xullas, Isroil xalqini haromlikdan saqlanglar. Tag‘in ular haromligi bilan
oralaridagi Muqaddas chodirimni bulg‘ab qo‘yib, nobud bo‘lmasinlar. 32 Bu qoidalar
jinsiy a’zosidan maniy oqqan erkaklarga, 33 hayz ko‘rgan ayollarga, har qanday ajralmasi
oqqan erkagu ayollarga va ayolning haromligi davrida u bilan yotgan erkaklarga
taalluqlidir.

16–BOB

Poklanish kuni

1-2 Horunning ikki o‘g‘li Egamiz amr etmagan begona olovni olib kelib, nobud
bo‘lganlaridan so‘ng*, Egamiz Musoga gapirib, shunday dedi: “Akang Horunga ayt, u
ichki parda orqasidagi Eng muqaddas xonaga xohlagan paytida kirmasin*. U yerdagi
Ahd sandig‘ining qopqog‘i oldiga bormasin. Aks holda, u nobud bo‘ladi. Zotan, Men o‘sha
qopqoq ustida bulut orasida zohir bo‘laman.”

3 Egamiz Musoga quyidagi qoidalarni berdi: Horun Muqaddas xonaga kirishidan
oldin bitta buqani gunoh qurbonligi va bitta qo‘chqorni kuydiriladigan qurbonlik qilishi
lozim. 4 Ustiga u zig‘ir matosidan tikilgan muqaddas ko‘ylakni, ichidan zig‘ir ishtonni
kiyib olsin, beliga zig‘ir belbog‘ bog‘lab, boshiga zig‘ir matosidan salla kiysin. Bu
muqaddas liboslardir. Shuning uchun u shu liboslarni kiyishdan oldin yuvinsin, shundan
so‘nggina ularni kiysin. 5 So‘ng Isroil jamoasidan gunoh qurbonligi uchun ikkita takani
va kuydiriladigan qurbonlik uchun bitta qo‘chqorni olsin.

6 Horun o‘zini va xonadonini gunohdan poklash uchun buqani gunoh qurbonligi
sifatida keltirsin. 7 So‘ng ikkita takani Uchrashuv chodiri kiraverishiga yetaklab kelib,
Egamizga taqdim qilsin. 8 O‘sha yerda ikkala taka uchun qur’a tashlasin*, qaysi birini
Egamizga qurbonlik qilishni va qaysi birini qo‘yib yuborishni aniqlasin. 9 Horun qur’a
bo‘yicha Egamizga tegishli takani keltirib, gunoh qurbonligi qilsin. 10 Qo‘yib
yuboriladigan takani esa tiriklayin Egamizning oldiga olib kelsin. Bu taka xalqni

gunohdan poklash uchun cho‘lga haydab yuboriladi.
11 Horun o‘zini va xonadonini gunohdan poklash uchun olib kelgan buqani so‘yib,
gunoh qurbonligi qilsin. 12 So‘ng olovkuragiga Egamiz huzurida turgan qurbongohdagi
cho‘g‘lardan solsin. Tuyilgan xushbo‘y tutatqidan ikki hovuch olib, ichki parda
orqasidagi Eng muqaddas xonaga kirsin. 13 Bu tutatqilarni Egamizning huzurida yonib
turgan cho‘g‘lar ustiga tashlasin. Tutatqi tutunidan hosil bo‘lgan bulut Ahd sandig‘ining*
qopqog‘ini berkitadi. Shunda Horun o‘lmaydi. 14 Horun buqaning qonidan olib, barmog‘i
bilan qopqoqqa bir marta sachratsin, so‘ng qopqoqning oldida yetti marta sachratsin.
15 So‘ngra xalqni gunohlaridan poklash uchun takani so‘ysin. Qonidan Eng muqaddas
xonaga olib kirsin. Buqaning qonini sachratganday, takaning qonini ham qopqoq ustiga
va uning oldida sachratsin. 16 Shu tariqa u Eng muqaddas xonani Isroil xalqining
nopokliklaridan, itoatsizliklaridan va gunohlaridan poklash uchun marosim o‘tkazsin.
Butun Uchrashuv chodiri uchun ham, shu singari, poklash marosimini o‘tkazsin. Chunki
bu Chodir bulg‘angan xalq orasida o‘rnatilgandir. 17 Horun Eng muqaddas xonaga kirib,
o‘zini, xonadonini va Isroil jamoasini gunohdan poklab chiqmaguncha hech kim
Uchrashuv chodiriga kirmasin. 18 So‘ng Horun tashqariga chiqib, Egamiz huzuridagi
qurbongohni poklash uchun marosim o‘tkazsin. Buqaning va takaning qonidan olib,
qurbongohning har bir shoxiga* surtib chiqsin. 19 Qurbongohga yetti marta barmog‘i
bilan qonni sachratsin. Shu yo‘l bilan qurbongohni Isroil xalqining nopokliklaridan
poklab, muqaddas qilsin.

Cho‘lga haydaladigan taka

20 Horun Eng muqaddas xona, Uchrashuv chodiri va qurbongohni poklash
marosimini o‘tkazib bo‘lgach, tirik takani yetaklab kelsin. 21 U ikkala qo‘lini takaning
boshiga qo‘ysin, Isroil xalqining hamma nohaqliklarini, hamma itoatsizliklarini va
hamma gunohlarini birma–bir e’tirof etib, takaning boshiga yuklasin. Takani cho‘lga
haydab yuborish uchun mas’ul bo‘lgan odam takani olib ketsin. 22 O‘sha odam takani
cho‘lga qo‘yib yuborgandan keyin, taka o‘zi bilan xalqning gunohlarini kimsasiz joyga
olib ketadi.
23 Shundan keyin Horun Uchrashuv chodiriga kirib, Eng muqaddas xonaga kiyib
kirgan zig‘ir matosidan tikilgan liboslarini yechsin–da, ularni o‘sha yerda qoldirsin. 24 U
muqaddas joyda butun badanini yuvib, kundalik ruhoniylik kiyimlarini kiyib olsin. So‘ng
tashqariga chiqib, o‘zining va xalqning kuydiriladigan qurbonliklarini ado etsin. Shu
tariqa o‘zini ham, xalqni ham gunohdan poklasin. 25 Gunoh qurbonligining yog‘ini
qurbongoh ustida kuydirsin. 26 Qo‘yib yuboriladigan takani cho‘lga haydab yuborgan
odam kiyimlarini va butun badanini yuvsin. Shundan so‘nggina u qarorgohga kira oladi.
27 Gunoh qurbonligi qilingan va qoni Isroil xalqini gunohdan poklash uchun Eng
muqaddas xonaga olib kirilgan buqa va takaning tanasi qarorgohning tashqarisiga olib
chiqilsin. Bularning terisi, tanasi va ichak–chovoqlari kuydirib yuborilsin. 28 Bularni
kuydirgan odam kiyimlarini va butun badanini yuvsin. Shundan so‘nggina u qarorgohga
kira oladi.

Poklanish kuniga rioya qilish

29 Quyidagilar sizlar uchun doimiy qonun–qoida bo‘lsin: yettinchi oyning* o‘ninchi
kunida ro‘za tutinglar, hech qanday ish qilmanglar. Bu qonun–qoida Isroil xalqiga va
orangizdagi musofirlarga birday taalluqlidir. 30 Zotan, o‘sha kuni ruhoniy sizlarni

gunohlaringizdan poklaydi. Shunda sizlar Egamiz huzurida barcha gunohlaringizdan
forig‘ bo‘lasizlar. 31 O‘sha kuni Shabbat singari to‘liq dam olinglar, ro‘za tutinglar. Bu
sizlar uchun doimiy qonun–qoida bo‘lsin. 32 Moy surtilgan ruhoniy bobosi Horun o‘rniga
oliy ruhoniylikka bag‘ishlanib, muqaddas zig‘ir liboslarini kiygach, sizlarni
gunohlaringizdan poklasin. 33 U Eng muqaddas xonani, Uchrashuv chodirini,
qurbongohni, ruhoniylarni va butun Isroil jamoasini poklash uchun marosim o‘tkazsin.
34 Yilda bir marta Isroil xalqi barcha gunohlaridan poklansin. Bu sizlar uchun doimiy
qonun–qoida bo‘lsin.

Egamiz nimani amr etgan bo‘lsa, Muso hammasini ado etdi*.

17–BOB

Qonning tabarrukligi

1 Egamiz Muso orqali 2 Horunga, uning o‘g‘illariga va jamiki Isroil xalqiga quyidagi
amrlarni berdi: 3 agar Isroil xalqidan birortasi qarorgohda yoki qarorgoh tashqarisida
buqa, qo‘zi yoki echkini qurbonlik qilsa–yu, 4 uni Egamizga taqdim qilish uchun
Uchrashuv chodiri kiraverishiga olib kelmasa, o‘sha odam qon to‘kkani uchun aybdor
hisoblansin. Qon to‘kkan bu odam xalq orasidan yo‘q qilinsin. 5 Bu qoida Isroil xalqining
dalalarda qurbonliklar qilishlariga chek qo‘yadi. Ular qurbonliklarini ruhoniyga,
Uchrashuv chodiri kiraverishiga olib keladigan bo‘lishadi va qurbonliklarini tinchlik
qurbonligi qilib, Egamizga bag‘ishlashadi. 6 Ruhoniy qurbonlikning qonini Uchrashuv
chodiriga kiraverishda turgan Egamizning qurbongohiga sepsin. So‘ng Egamizga
yoqimli hid borishi uchun qurbonlikning yog‘ini kuydirsin. 7 Bundan buyon Isroil xalqi
o‘z qurbonliklarini echki jinlarga* keltirmasin, Egamizga bevafolik qilmasin. Bu qoidaga
ular doimo, avlodlari osha rioya qilishsin.

8 Isroil xalqidan yoki ularning oralarida istiqomat qilayotgan musofirlardan birortasi
kuydiriladigan va boshqa qurbonliklar qilsa–yu, 9 o‘shalarni Egamizga nazr qilish uchun
Uchrashuv chodiri kiraverishiga olib kelmasa, u odam xalq orasidan yo‘q qilinsin.

10 Agar Isroil xalqidan yoki ularning oralarida istiqomat qilayotgan musofirlardan
birortasi qoni chiqarilmagan go‘shtni yesa, Egamiz qon iste’mol qilgan o‘sha odamga
qarshi chiqib, uni xalq orasidan yo‘q qilib yuboradi. 11 Zotan, jonzotning joni uning
qonidir. Egamiz qonni sizlarga qurbongoh ustida gunohlaringizni yuvish uchun bergan.
Jon ato etadigan qon sizlarni gunohlaringizdan poklaydi. 12 Shuning uchun Egamiz Isroil
xalqiga: “Qoni chiqarilmagan go‘shtni zinhor iste’mol qilmang, oralaringizda
yashayotgan musofir ham qonni iste’mol qilmasin”, — deb aytgan.

13 Ovlangan halol hayvon yoki qushning qonini chiqaringlar. Qonni tuproq bilan
ko‘mib qo‘yinglar. Bu qoida Isroil xalqiga va ularning orasida istiqomat qilayotgan
musofirlarga taalluqlidir. 14 Har bir jonzotning joni uning qonidir. Shu bois Egamiz Isroil
xalqiga aytdi: “Qoni chiqarilmagan go‘shtni yemanglar. Zotan, har bir jonzotning joni
qondadir. Qon iste’mol qilgan odam xalqi orasidan yo‘q qilinsin.”

15 Harom o‘lgan yoki yovvoyi hayvon g‘ajib tashlagan jonivorning go‘shtini yegan har
bir odam, Isroil xalqidan yoki boshqa xalqdan bo‘lishidan qat’i nazar, kiyimlarini yuvsin,
o‘zi ham yuvinsin. U kechgacha harom bo‘lib, so‘ng yana pok bo‘ladi. 16 Bordi–yu, u
kiyimlarini yuvmasa, o‘zi ham yuvinmasa, qilgan gunohi uchun jazolanadi.

18–BOB

Man qilingan jinsiy aloqalar

1 Egamiz Muso orqali 2 Isroil xalqiga shunday dedi: “Men Egangiz Xudoman. 3 Sizlar
yashab yurgan Misr xalqining odatlariga va Men sizlarni olib borayotgan Kan’on
yurtidagi xalqlarning odatlariga taqlid qilmanglar. Ularning udumlariga ergashmanglar.
4 Faqat Mening qonunlarimga itoat etinglar, qoidalarimni bitta qoldirmay bajaringlar.
Zotan, Men Egangiz Xudoman. 5 Qonun–qoidalarimga amal qilinglar. Ularga rioya qilgan
odam hayotdan bahramand bo‘ladi. Men Egangizman.
6 Tug‘ishgan yaqin qarindoshingiz bilan yotmang. Men Egangizman. 7 Onangiz bilan
yotib, otangizning sha’niga dog‘ tushirmang. Onangiz bo‘lgani uchun u bilan yotmang.
8 Otangizning xotini bilan yotmang, bunday qilib otangizning sha’niga dog‘ tushirmang.
9 Tug‘ishgan yoki o‘gay opa–singlingiz bilan yotmang. U otangizning qizi yoki
onangizning qizi bo‘lishidan qat’i nazar, siz bilan bir uyda katta bo‘lgan yoki boshqa
joyda o‘sganidan qat’i nazar, u bilan yotmang. 10 O‘z nevarangiz — o‘g‘lingizning qizi
yoki qizingizning qizi bilan yotmang. Bunday qilib o‘z sha’ningizga dog‘ tushirmang.
11 Otangizdan tug‘ilgan, o‘gay onangizning qizi bilan yotmang, chunki u sizning o‘gay
singlingizdir. 12 Ammangiz bilan yotmang, chunki u otangizning jigaridir. 13 Xolangiz
bilan yotmang, chunki u onangizning jigaridir. 14 Amakingizning sha’niga dog‘ tushirib,
uning xotini bilan yotmang. Axir, u sizning kelin oyingizdir. 15 Keliningiz bilan yotmang.
U o‘g‘lingizning xotinidir. 16 Aka–ukangizning xotini bilan yotmang. Bunday qilib
akangizning sha’niga dog‘ tushirmang. 17 Siz biror ayol bilan yotgan bo‘lsangiz, o‘sha
ayolning qizi yoki qiz nevarasi bilan yotmang. U o‘g‘lining qizi bo‘lsa ham yoki qizining
qizi bo‘lsa ham u bilan yotmang, ular qondoshdir. Bunday qilish buzuqlikdir.
18 Xotiningizning singlisini xotiningizga kundosh qilmang. Xotiningiz tirik ekan, uning
singlisi bilan yotmang.
19 Hayz ko‘rib harom bo‘lgan ayol bilan yotmang. 20 Qo‘shningizning xotini bilan
jinsiy aloqa qilib, o‘zingizni bulg‘amang. 21 Bolalaringizning birortasini Mo‘laxga
qurbonlik qilmang*, axir, Men Egangizman. Bunday qilmish bilan Men, Xudoyingizni
badnom qilmang. 22 Ayol bilan yotganday, erkak kishi bilan yotmang. Bu jirkanchdir.
23 Hayvon bilan jinsiy aloqa qilib, o‘zingizni bulg‘amang. Ayol kishi ham o‘zini hayvonga
qo‘yib berib, u bilan jinsiy aloqa qilmasin. Bu o‘taketgan razillikdir.
24 Bunday ishlar qilib o‘zingizni bulg‘amang. Men oldingizdan haydayotgan xalqlar
mana shunday ishlari tufayli bulg‘angan edilar. 25 Natijada butun yurt harom bo‘lib
ketdi. Men yurtni jazoladim, yurt esa u yerning xalqlarini qusib yubordi. 26 Sizlar Mening
qonun–qoidalarimga rioya qilinglar. Isroil xalqidan bo‘lganlar va orangizda yashayotgan
musofirlar bunday jirkanch ishlarni qilmasin. 27 Zotan, sizlardan oldin mana shu yurtda
yashagan xalqlar bu jirkanch ishlarning hammasini qilib, yurtni bulg‘agan edilar. 28 Agar
sizlar ham yurtni bulg‘asangiz, bu yurt oldingi xalqlarni qusib yuborganday sizlarni ham
qusib yuboradi. 29 Bunday jirkanch ishni qilgan har qanday odam xalq orasidan yo‘q
qilinsin.
30 Xullas, talablarimni bajaringlar. Sizlardan oldin bu yurtda qilingan jirkanch
ishlarni qilib, o‘zingizni bulg‘amanglar. Zotan, Men Egangiz Xudoman.”

19–BOB

Adolat va solihlik haqida qonunlar

1 Egamiz Muso orqali 2 butun Isroil jamoasiga shunday dedi: “Muqaddas bo‘linglar,
chunki Men, Egangiz Xudo, muqaddasman. 3 Har biringiz ota–onangizni hurmat qiling.
Shabbat kunlarimga rioya qiling. Zotan, Men Egangiz Xudoman. 4 Butlarga sajda
qilmang, o‘zlaringiz uchun butlar yasamang. Men Egangiz Xudoman.
5 Tinchlik qurbonligini Menga keltirganingizda qoidalarga rioya qiling, toki
qurbonligingiz qabul bo‘lsin. 6 Qurbonlikning go‘shtini qurbonlik qilingan kuni yoki
ertasi kuni tanovul qiling. Uchinchi kuni ortib qolgan go‘shtni kuydiring. 7 Bordi–yu,
qurbonlikning go‘shti uchinchi kuni yeyilsa, qurbonligingiz bulg‘angan hisoblanib, qabul
bo‘lmaydi. 8 Undan yegan har bir odam Mening muqaddas deb bilgan narsamni
bulg‘agani uchun jazoga tortilsin. Bunday odam xalq orasidan yo‘q qilinsin.
9 Dalangiz hosilini o‘rganingizda dalaning eng chetidagi bug‘doyni o‘rmang, yerga
tushib qolgan bug‘doy boshoqlarini ham termang. 10 Uzumzoringiz hosilini
yiqqaningizdan keyin, toklarda qolib ketgan va yerga tushib qolgan uzum boshlarini
yig‘ib olmang. Ularni kambag‘al va musofirlarga qoldiring. Men Egangiz Xudoman.
11 O‘g‘rilik qilmang, aldamang, birovga yolg‘on gapirmang. 12 Mening nomim bilan
yolg‘ondakam ont ichmang. Shu orqali Men, Xudoyingizni badnom qilmang. Men
Egangizman.
13 Qo‘shningizni tovlamang, uni talamang. Mardikorning haqini ertalabgacha
qoldirmang. 14 Kar odamni qarg‘amang. Ko‘r odamning yo‘liga to‘siq qo‘ymang. Men,
Xudoyingizdan qo‘rqing. Men Egangizman.
15 Hukm chiqarganda haqsizlik qilmang, faqirga ham yon bosmang, obro‘li odamning
ham ko‘ngliga qarab ish tutmang. Qo‘shningizni adolat bilan hukm qiling. 16 Odamlar
orasida qo‘shningizni g‘iybat qilib, uning jonini xavf ostiga qo‘ymang. Men Egangizman.
17 Dilingizda birodaringizga qarshi gina qilmang. Qo‘shningizning aybini ochiq yuziga
soling, shunda siz uning aybi uchun jazoga tortilmaysiz. 18 Qasos olmang,
yurtdoshingizga qarshi kek saqlamang. Aksincha, o‘zgani o‘zingizni sevganday seving.
Men Egangizman.
19 Qonun–qoidalarimga rioya qiling. Molingizni boshqa turdagi hayvonlar bilan
chatishtirmang. Dalangizga ikki xil urug‘ sepmang. Ustingizga ikki turdagi ipdan
to‘qilgan kiyimni kiymang.
20 Agar erkak kishi boshqa birovga unashtirib qo‘yilgan cho‘ri bilan yotsa, u keltirgan
zararni cho‘rining egasiga to‘lashi lozim. Cho‘ri hali ozodlikka chiqarilmagani uchun
ikkoviga ham o‘lim jazosi berilmasin. 21 Erkak ayb qurbonligi sifatida bir qo‘chqorni
Uchrashuv chodiri kiraverishiga olib kelib, Menga taqdim qilsin. 22 Ruhoniy qo‘chqorni
ayb qurbonligi qilib, o‘sha odamni Mening huzurimda gunohidan poklasin. Shunda
uning qilgan gunohi kechiriladi.
23 Sizlar Kan’on yurtiga kirib, turli xil mevali daraxtlar ekkaningizdan keyin, uch yil
davomida ularning mevasidan yemang. Ularni yeyish man etilsin. 24 To‘rtinchi yili
hamma mevalar shukrona nazri sifatida Menga bag‘ishlansin. 25 Beshinchi yili esa
mevalarini yeyishingiz mumkin. Shunday qilsangiz, daraxtlaringiz serhosil bo‘ladi. Men
Egangiz Xudoman.
26 Qoni chiqarilmagan go‘shtni yemang. Ta’birchilarga e’tiqod qilmang, fol

ochtirmang. 27 Chakkangizdagi sochlaringizni qirmang, soqolingizning uchini qirqmang.
28 Aza tutganingizda marhum uchun badaningizni kesmang, teringizni teshib surat solmang*. Zero, Men Egangizman.

29 Qizingizni fohishalik qilishga undamang*, uni bulg'amang. Toki yurt zinoga botmasin, buzuqlik avj olmasin. 30 Mening Shabbat kunlarimga rioya eting, muqaddas makonimni izzat qiling. Men Egangizman.

31 Arvoh chaqiruvchilarning oldiga bormang, folbinlarga maslahat solmang. Ularning dastidan o'zingizni bulg'amang. Men Egangiz Xudoman.

32 Mo'ysafidni ko'rganingizda o'rningizdan turing, qariyaning hurmatini joyiga qo'ying. Men, Xudoyingizdan qo'rqing. Men Egangizman.

33 Yurtingizda yashab yurgan musofirga zulm qilmang. 34 Unga o'z yurtdoshingizday qarang. Musofirni o'zingizni sevganday seving, chunki sizlar ham Misr yurtida musofir edingizlar. Men Egangiz Xudoman.

35 Uzunlikni, og'irlikni va miqdorni o'lchaganda g'irromlik qilmang. 36 Tarozingiz, qadoq toshlaringiz, o'lchov tog'orayu kosalaringiz* to'g'ri bo'lsin. Men sizlarni Misr yurtidan olib chiqqan Egangiz Xudoman. 37 Qonun–qoidalarimning hammasini bitta qoldirmay bajaringlar. Men Egangizman."

20–BOB

Itoatsizlik uchun jazolar

1 Egamiz Muso orqali 2 Isroil xalqiga shunday dedi: "O'z bolasini Mo'laxga qurbonlik qilgan har qanday odamga, Isroil xalqidan yoki yurtingizda yashagan musofir bo'lishidan qat'i nazar, o'lim jazosi berilsin. Butun jamoa uni toshbo'ron qilsin. 3 Men O'zim bunday odamga qarshi chiqib, uni xalq orasidan yo'q qilib yuboraman, chunki u farzandini Mo'laxga qurbonlik qilib, Muqaddas chodirimni bulg'agan bo'ladi, Men, Muqaddas Xudoni badnom etgan bo'ladi. 4 Bordi–yu, jamoa bu odamning qilmishidan ko'z yumib, uni o'ldirmasa, 5 Men O'zim bu odamga va uning xonadoniga qarshi chiqaman. Ularni xalq orasidan yo'q qilaman. Menga bevafolik qilib, Mo'laxga sig'inadigan barcha izdoshlarini ular qatori qirib yuboraman.

6 Agar biror odam Menga bevafolik qilib, arvoh chaqiruvchiga va folbinga maslahat solsa, Men o'sha odamga qarshi chiqib, uni xalq orasidan yo'q qilib yuboraman.
7 O'zlaringizni Menga bag'ishlanglar, muqaddas bo'linglar. Men Egangiz Xudoman.
8 Qonun–qoidalarimni bitta qoldirmay bajaringlar. Sizlarni muqaddas qiladigan Egangizman. 9 Otasini yoki onasini xo'rlagan har qanday odamga o'lim jazosi berilsin. Uning qoni o'z gardanida qoladi.

10 Agar erkak qo'shnisining xotini bilan zino qilsa, ikkovi ham o'ldirilsin. 11 Otasining xotini bilan yotgan erkak otasining sha'niga dog' tushirgan bo'ladi. Bunday erkak va ayol o'ldirilsin. Ularning qoni o'z gardanida qoladi. 12 Agar erkak o'z kelini bilan yotsa, ikkovi ham o'ldirilsin. Axir, ular o'taketgan razillik qildilar. Ularning qoni o'z gardanida qoladi.
13 Agar erkak ayol bilan yotganday boshqa erkak bilan yotsa, ularning ikkovi jirkanch ish qilgan bo'ladilar. Ikkovi ham o'ldirilsin, ularning qoni o'z gardanida qoladi. 14 Agar erkak xotin olib, xotinining onasiga ham uylansa, u buzuqlik qilgan bo'ladi. Ularning uchalovi ham tiriklayin olovga tashlansin. Orangizdan buzuqlikni yo'q qiling. 15 Agar erkak hayvon bilan jinsiy aloqa qilsa, u o'lim jazosini olsin. Hayvon ham o'ldirilsin. 16 Agar ayol

hayvonning oldiga borib jinsiy aloqa qilsa, ayolni ham, hayvonni ham o‘ldiring. Ularning qoni o‘z gardanida qoladi.

17 Agar erkak o‘z singlisiga — otasining yoki onasining qiziga uylanib, u bilan qovushsa, sharmandalikka yo‘l qo‘ygan bo‘ladi. Ularning ikkovi ham xalqning ko‘zi oldida yo‘q qilinsin. U singlisining sha’niga dog‘ tushirgani uchun jazoga tortilsin. 18 Agar erkak hayz ko‘rgan ayol bilan yotsa, ikkalasi ayolning hayz manbaini ochgan hisoblanadi. Ularning ikkovi ham xalq orasidan yo‘q qilinsin. 19 Xolangiz yoki ammangiz bilan yotmang. Bunday qilgan odam o‘z qondoshining sha’niga dog‘ tushirgan bo‘ladi. Ularning ikkovi ham jazoga tortilsin. 20 Agar erkak amakisining xotini bilan yotsa, u amakisining sha’niga dog‘ tushirgan bo‘ladi. Erkak ham, ayol ham jazoga tortilsin. Ular farzand ko‘rmay o‘tib ketishadi. 21 Agar erkak akasining yoki ukasining xotiniga uylansa, yaramas ish qilgan bo‘ladi*. U akasining yo ukasining sha’niga dog‘ tushirgani uchun, ular farzandsiz o‘tib ketishadi.

22 Qonun–qoidalarimni bitta qoldirmay bajaringlar, toki Men sizlarni olib borayotgan yurt sizlarni qusib yubormasin. 23 Men oldingizdan quvib yuborayotgan xalqlarning odatlariga taqlid qilmanglar. Ular bu ishlarning hammasini qilganlari uchun, Men ulardan jirkanib ketdim. 24 Sizlar ularning sut va asal oqib yotgan yurtini* mulk qilib olasizlar, deb Men sizlarga va’da qilgan edim. O‘sha yurtni sizlarga Men beraman. Men Egangiz Xudoman. Sizlarni xalqlar orasidan ajratib olganman. 25 Shunday ekan, sizlar halol bilan harom hayvonning farqiga, halol bilan harom qushning farqiga borishingiz lozim. Harom hayvonu qushlarni va yerda sudralib yuruvchilarni yeb o‘zingizni bulg‘amang. Men ularni harom deb e’lon qilganman. 26 O‘zingizni Menga bag‘ishlab, muqaddas bo‘linglar, chunki Men, Egangiz, muqaddasman. Men sizlarni boshqa xalqlardan O‘zim uchun ajratib olganman.

27 Arvoh chaqiradigan va folbinlik qiladigan erkagu ayolning jazosi o‘limdir. Ularni toshbo‘ron qiling, ularning qoni o‘z gardanida qoladi.”

21–BOB

Ruhoniylarning muqaddasligi

1 Egamiz Muso orqali Horunning ruhoniy o‘g‘illariga shunday dedi: “Ruhoniy qazo qilgan qarindoshining jasadiga tegib o‘zini bulg‘amasin. 2 Bordi–yu, marhum ruhoniyning eng yaqin qarindoshi, ya’ni ota–onasi, o‘g‘il–qizi, aka–ukasi, 3 shuningdek, turmushga chiqmagan opa–singlisi bo‘lsa, ular tufayli bulg‘anishi mumkin. 4 Lekin xotini tomonidan birov qazo qilsa, u tufayli o‘zini bulg‘ab, murdor bo‘lmasin. 5 Ruhoniy aza tutganda sochini qirmasin, soqolining uchini qirqmasin, badanini tilmasin*. 6 U Mening oldimda muqaddas bo‘lsin, Meni badnom etmasin. Men, Egasiga olovda kuydiriladigan taom nazrlarini keltirgani uchun u muqaddas bo‘lsin. 7 Fohishalik qilib bulg‘angan yoki eridan ajralgan ayolga uylanmasin. Zotan, ruhoniy Mening oldimda muqaddasdir. 8 Xalq ham ruhoniyni muqaddas deb bilsin, chunki Men, Xudoyingizga non keltiradigan o‘shadir. U odamlar uchun muqaddas bo‘lsin, zotan, Men, Egangiz, muqaddasman. Xalqimni muqaddas qiladigan Menman. 9 Agar ruhoniyning qizi fohishalik qilib o‘zini bulg‘asa, u otasini ham bulg‘agan bo‘ladi. Unday qizni tiriklayin kuydirish lozim.

10 Aka–ukalari orasidan boshiga moy surtib tanlangan oliy ruhoniy ruhoniylik liboslarini kiyish uchun bag‘ishlangandir. Shuning uchun u qayg‘udan sochini

to‘zitmasin*, liboslarini ham yirtmasin. 11 Jasadning yaqiniga bormasin, hatto vafot
etgan ota–onasi tufayli ham o‘zini bulg‘amasin. 12 U ota–onasini dafn qilish uchun
Muqaddas chodirdan chiqmasin, shu tufayli Mening Chodirimni bulg‘amasin. Zotan,
Mening muqaddas qiladigan moyim* uning ustidadir, u Menga bag‘ishlangandir. Men
Egangizman. 13 Oliy ruhoniy faqat bokira qizga uylansin. 14 Beva, eridan ajralgan yoki
fohishalik qilib bulg‘angan ayolni xotinlikka olmasin. O‘z qavmidagi bokira qizga
uylansin, 15 shu tariqa muqaddas naslini haromlikdan asrasin. Men, Egangiz, uni
muqaddas qilganman.”
16 Egamiz Muso orqali 17 Horunga shunday dedi: “Avlodingdan nuqsoni bor biror
odam Menga qurbonliklarni keltirmasin. Bunga avlodlar osha rioya qilinglar. 18 Nuqsoni
bor hech kim yaqinimga kelmasin: ko‘r, cho‘loq, yuzi shikastlangan, mayib, 19 qo‘l–oyog‘i
singan, 20 bukur, pakana, ko‘zida nuqsoni bor, yiringlagan yaralari yoki qo‘tiri bor,
moyagi ezilgan odam qurbongohning yaqiniga bormasin. 21 Ruhoniy Horun naslidan
nuqsoni bor birontasi ham olovda kuydiriladigan nazrlarni Men, Egangizga keltirmoqchi
bo‘lib yaqinlashmasin. Nuqsoni bo‘lgani uchun u Menga taom nazrlarini keltirish uchun
yaqinlashmasin. 22 U Mening qurbonliklarimni, eng muqaddas va muqaddas nazrlarimni
tanovul qilishi mumkin. 23 Lekin nuqsoni borligi uchun u Muqaddas xonadagi ichki
pardaga va qurbongohga aslo yaqinlashmasin. Aks holda, u muqaddas makonimni
bulg‘agan bo‘ladi. Makonimni muqaddas qiladigan Egangiz Menman.”

24 Shunday qilib, Muso bularning hammasini Horun va uning o‘g‘illariga hamda
butun Isroil xalqiga aytdi.

22–BOB

Nazrlarning muqaddasligi

1 Egamiz Muso orqali 2 Horun va uning o‘g‘illariga shunday dedi: “Sizlar Isroil
xalqining Menga bag‘ishlagan ehsonlari bilan ehtiyotkor bo‘linglar, tag‘in Men,
Muqaddas Xudoni badnom qilib qo‘ymanglar. Men Egangizman. 3 Agar naslingizdan
birontasi harom bo‘la turib, Isroil xalqi Menga bag‘ishlagan ehsonlarga yaqinlashsa, u
Mening huzurimda boshqa xizmat qilmaydigan bo‘lsin. Men Egangizman. 4 Horunning
naslidan teri kasalligiga* chalingan yoki ajralmasi oqqan birortasi poklanmaguncha
ehsondan tanovul qilmasin. Bordi–yu, ruhoniylardan birortasi murda dastidan
bulg‘angan narsaga tegsa yoki jinsiy a’zosidan maniy oqsa, 5 yoxud o‘rmalab yuradigan
harom jonivorga yo harom bo‘lgan odamga tegsa, o‘zi harom bo‘lgan hisoblanadi. U
tekkan odam qanday yo‘l bilan harom bo‘lganidan qat’i nazar, 6 ruhoniy kechgacha
harom bo‘ladi. Ruhoniy badanini yuvmaguncha ehsondan tanovul qilmasin. 7 Quyosh
botgandan keyin u pok bo‘ladi. Ana shundagina u ehsonlardan tanovul qila oladi, chunki
bu ehsonlar uning taomidir. 8 Harom o‘lgan yoki yovvoyi hayvon g‘ajigan jonivorning
go‘shtini ruhoniy yemasin. Aks holda, u o‘zini o‘zi harom qiladi. Men Egangizman.
9 Ruhoniylar talablarimni bajarishsin. Aks holda, talablarimga rioya qilmaganlari uchun
gunohlarining jazosini olib, nobud bo‘ladilar. Ularni muqaddas qiladigan Egangiz
Menman.
10 Ruhoniy xonadoniga mansub bo‘lgan kishilargina ehsonlardan tanovul qilishlari
mumkin. Ruhoniynikida turgan musofir yoki mardikor ehsonlardan tanovul qilmasin.

11 Lekin ruhoniy o‘z kumushiga sotib olgan yoki uning xonadonida tug‘ilgan qulu
cho‘rilar bu nazrlardan tanovul qilishlari mumkin. 12 Agar ruhoniyning qizi ruhoniylar
qavmiga mansub bo‘lmagan odamga turmushga chiqsa, ehsonlardan tanovul qilish unga
man etilsin. 13 Bordi–yu, ruhoniyning bu qizi farzand ko‘rmay beva bo‘lib qolsa yoki
eridan ajralsa, otasining xonadoniga qaytib kelgandan keyin, qizlik davridagiday
otasining taomidan tanovul qilishi mumkin. Ammo ruhoniylar qavmiga mansub
bo‘lmagan odam ruhoniyning taomidan tanovul qilmasin. 14 Agar biror odam bilmagan
holda ehsondan yeb qo‘ysa, u ruhoniyga keltirgan zararni to‘lab, ustiga beshdan bir
qismini qo‘shib bersin. 15 Ruhoniylar Isroil xalqining Menga keltirgan ehsonlarini
bulg‘ashmasin. 16 Ularni boshqalarning tanovul qilishiga yo‘l qo‘yishmasin. Aks holda,
ruhoniylar Isroil xalqini aybdor qilib qo‘yishadi, xalq ayb qurbonligi keltirishi kerak
bo‘ladi. Ehsonni muqaddas qiladigan Egangiz Menman.”

17 Egamiz Muso orqali 18 Horunga, uning o‘g‘illariga va butun Isroil xalqiga quyidagi
qoidalarni berdi: Isroil xalqidan yoki orangizda yashayotgan musofirlardan birortasi
bergan va’dasi ustidan chiqmoqchi bo‘lib yoki ko‘ngildan chiqarib, Egamizga
kuydiriladigan qurbonlik keltirmoqchi bo‘lsa 19 nuqsonsiz buqa, qo‘chqor yoki takani
olib kelsin. Shunda qurbonligi qabul bo‘ladi. 20 Nuqsoni bor jonivorni olib kelmang,
bunday qurbonligingiz qabul bo‘lmaydi.

21 Agar birortasi bergan va’dasi ustidan chiqish uchun yoki ko‘ngildan chiqarib,
Egamizga tinchlik qurbonligini keltirmoqchi bo‘lsa, podasi yoki suruvidan nuqsonsiz
jonivorni tanlab olsin. Qurbonligi qabul bo‘lishi uchun jonivor bekami–ko‘st bo‘lsin.
22 Ko‘r, jarohatlangan, mayib, yarasidan yiring oqqan, qo‘tir yoki qichimasi bor jonivorni
Egamizga keltirmang, uni olovda kuydiriladigan nazr sifatida qurbongoh ustida
kuydirmang. 23 Bir tuyog‘i kalta yoki uzun bo‘lgan buzoqni yoki qo‘zichoqni ko‘ngildan
chiqarib beradigan qurbonlik sifatida keltirishingiz mumkin. Lekin bunday jonivorni
bergan va’dangiz ustidan chiqish uchun olib kelmang, u qabul bo‘lmaydi. 24 Moyagi
ko‘kargan, ezilgan, uzilgan yoki kesib olingan jonivorni Egamizga keltirmang.
Yurtingizda bunga yo‘l qo‘ymang. 25 Xudoyingizga qurbonlik keltirmoqchi bo‘lgan
musofirdan ham mayib jonivorni qabul qilmang. Bunday jonivor nuqsonli bo‘lgani
uchun qabul bo‘lmaydi.

26 Egamiz Musoga yana dedi: 27 “Yangi tug‘ilgan buzoq, qo‘zichoq yoki uloqcha yetti
kun onasining yonida bo‘lsin. Yettinchi kundan keyin uni olovda kuydirib, Menga nazr
qilishingiz mumkin. 28 Lekin podangizdagi yoki suruvingizdagi ona va bolani bir kunda
so‘ymang. 29 Menga shukrona qurbonligini* keltirmoqchi bo‘lganingizda qoidalarga
rioya qilgan holda keltiring, toki qurbonligingiz qabul bo‘lsin. 30 Qurbonlikning go‘shtini
o‘sha kuniyoq tanovul qiling. Undan ertalabgacha hech narsa qoldirmang. Men
Egangizman.

31 Amrlarimni bitta qoldirmay bajaring. Men Egangizman. 32 Men, Muqaddas Xudoni
badnom qilmang. Butun Isroil xalqi Meni muqaddas deb bilsin. Men sizlarni muqaddas
qiladigan Egangizman. 33 Xudoyingiz bo‘lish uchun sizlarni Misr yurtidan olib
chiqqanman. Men Egangizman.”

23–BOB

Bayramlar

1 Egamiz Muso orqali 2 Isroil xalqiga quyidagi qoidalarni berdi: Egamiz belgilagan
bayramlarni nishonlanglar, o‘sha kunlari muqaddas yig‘in e’lon qilinglar. Egamizning
belgilagan bayramlari quyidagilardir.

Shabbat kuni

3 Olti kun mehnat qilinglar, yettinchi kuni — Shabbat kuni esa to‘liq dam olinglar.
Shu kuni muqaddas yig‘in bo‘lsin. Hech qanday ish qilmanglar. Axir, Shabbat kuni
Egamizga atalgandir! Qayerda yashashingizdan qat’i nazar, shu kunga rioya qilinglar.

Fisih ziyofati va Xamirturushsiz non bayrami

4 Egamiz Shabbat kunidan tashqari boshqa bayramlarni ham belgilab berdi. Bu
bayramlarda muqaddas yig‘inlarni o‘z vaqtida o‘tkazinglar.
5 Birinchi oyning* o‘n to‘rtinchi kuni kechqurun Egamizga bag‘ishlangan Fisih
ziyofatini* nishonlanglar. 6 O‘sha oyning o‘n beshinchi kuni esa Egamizga atab
xamirturushsiz non bayramini* qilinglar. Yetti kun davomida xamirturushsiz nonlar
yenglar. 7 Bayramning birinchi kuni butun xalq muqaddas yig‘inga kelsin. Har kungi
ishlaringiz bilan mashg‘ul bo‘lmanglar. 8 Yetti kun davomida har kuni Egamizga
qurbonlik keltirib, olovda kuydiringlar. Bayramning yettinchi kuni ham muqaddas yig‘in
o‘tkazinglar. Har kungi ishlaringiz bilan mashg‘ul bo‘lmanglar.

Ilk hosil nazri

9 Egamiz Muso orqali 10 Isroil xalqiga shunday dedi: “Men sizlarga berayotgan yurtga
kirganingizdan keyin, har yili yig‘ishtirgan hosilingizning* birinchi bog‘lamini ruhoniyga
olib keling. 11 Shabbat kunining ertasiga ruhoniy bog‘lamni Men, Egangizga
bag‘ishlaganini ko‘rsatib yuqoriga ko‘tarsin, shunda Men nazringizni qabul qilaman.
12 O‘sha kuni bir yoshli nuqsonsiz qo‘zini Menga kuydiriladigan qurbonlik qiling. 13 Qo‘zi
bilan birga zaytun moyi aralashtirilgan sakkiz kosa* sifatli unni don nazri qiling. Olovda
kuydirilgan bu qurbonlikdan Men, Egangizga yoqimli hid boradi. Bular bilan birga ikki
kosa* sharob nazrini keltiring. 14 Ilk hosil nazrini Menga keltirmaguningizcha yangi
bug‘doydan yopilgan nonni, qovurilgan bug‘doy va bug‘doy boshoqlarini tanovul
qilmang. Qayerda yashashingizdan qat’i nazar, bu sizlar uchun avlodlaringiz osha
doimiy qonun–qoida bo‘lsin.

Hosil bayrami

15 Hosilingizning birinchi bog‘lamini yuqoriga ko‘tarib, Men, Egangizga bag‘ishlagan
kuningizdan, ya’ni Shabbatning ertasi kunidan boshlab, to‘liq yetti haftani sanang.
16 Elliginchi kuni, yettinchi Shabbatdan keyin, Menga yangi don* nazrini olib keling.
17 Qayerda yashashingizdan qat’i nazar, yuqoriga ko‘tariladigan nazr uchun ikki dona
nonni olib keling. Nonlar sakkiz kosa sifatli undan, xamirturush qo‘shib yopilgan bo‘lsin.
Bular Menga keltiriladigan ilk hosilingiz nazridir. 18 Non bilan birga yettita bir yoshli
nuqsonsiz qo‘zini, bitta buqani va ikkita qo‘chqorni olib keling. Bularni don va sharob
nazrlari bilan birga kuydiriladigan qurbonlik qiling. Olovda kuydirilgan bu
qurbonlikdan Menga yoqimli hid boradi. 19 Bulardan tashqari, bitta takani gunoh
qurbonligi va ikkita bir yoshli erkak qo‘zini tinchlik qurbonligi qiling. 20 Ruhoniy ikkita
qo‘zini nonlar bilan birga Menga bag‘ishlaganini ko‘rsatish uchun yuqoriga ko‘taradi.

Men — Egangiz uchun muqaddas bo‘lgan bu nazr ruhoniylarniki bo‘lsin. 21 O‘sha kuni
muqaddas yig‘in e’lon qilinglar. Har kungi ishlaringiz bilan mashg‘ul bo‘lmanglar.
Qayerda yashashingizdan qat’i nazar, bu sizlar uchun avlodlaringiz osha doimiy qonun–
qoida bo‘lsin.
22 Dalangiz hosilini o‘rganingizda dalaning eng chetidagi bug‘doyni o‘rmang, yerga
tushib qolgan bug‘doy boshoqlarini ham termang. Ularni kambag‘al va musofirlarga
qoldiring. Men Egangiz Xudoman.”

Karnay bayrami

23 Egamiz Muso orqali 24 Isroil xalqiga shunday dedi: “Yettinchi oyning* birinchi
kunida to‘liq dam olinglar. Bu kun karnaylarning sadolari bilan nishonlanadigan xotira
kunidir. O‘sha kuni muqaddas yig‘in o‘tkazinglar. 25 Har kungi ishlaringiz bilan mashg‘ul
bo‘lmanglar. Menga qurbonlik keltirib, olovda kuydiringlar.”

Poklanish kuni

26 Egamiz Musoga dedi: 27 “Yettinchi oyning* o‘ninchi kunida esa Poklanish kunini*
nishonlanglar. O‘sha kuni muqaddas yig‘in bo‘lsin. Ro‘za tutib, Menga qurbonlik keltirib,
olovda kuydiringlar. 28 O‘sha kuni hech qanday ish qilmanglar, chunki bu kuni oliy
ruhoniy Egangiz Xudo huzurida sizlarni gunohlaringizdan poklaydi. 29 O‘sha kuni ro‘za
tutmagan odam xalq orasidan yo‘q qilinsin. 30 Ish bilan mashg‘ul bo‘lgan odamni ham
Men xalq orasidan yo‘q qilaman. 31 O‘sha kuni umuman hech qanday ish qilmang.
Qayerda yashashingizdan qat’i nazar, bu sizlar uchun avlodlaringiz osha doimiy qonun–
qoida bo‘lsin. 32 Bu kuni Shabbat kuni singari to‘liq dam oling. To‘qqizinchi kuni
kechqurundan boshlab, keyingi kuni kechqurungacha* ro‘za tuting.”

Chayla bayrami

33 Egamiz Muso orqali 34 Isroil xalqiga shunday dedi: “Yettinchi oyning* o‘n beshinchi
kunidan boshlab yetti kun davomida Menga atab Chayla bayramini nishonlanglar.
35 Bayramning birinchi kuni muqaddas yig‘in qilinglar. Har kungi ishlaringiz bilan
mashg‘ul bo‘lmanglar. 36 Yetti kun davomida har kuni Menga qurbonlik keltirib, olovda
kuydiringlar. Sakkizinchi kuni ham muqaddas yig‘in qilinglar, Menga qurbonlik keltirib,
olovda kuydiringlar. Bu oxirgi muqaddas yig‘in kunidir. Har kungi ishlaringiz bilan
mashg‘ul bo‘lmanglar.
37 Men, Egangiz, belgilagan bayramlar shulardir. Ularni nishonlab, muqaddas
yig‘inlar o‘tkazinglar. Olovda kuydiriladigan hamma nazrlaringizni — kuydiriladigan
qurbonliklarni, don nazrlarini, sharob nazrlarini belgilangan kunlarda Menga
keltiringlar. 38 Bu bayramlarni Menga atab, Shabbat kunlaridan tashqari nishonlanglar.
Bayram kunlari keltiradigan qurbonliklaringiz Menga beradigan ehsonlaringizdan,
bergan va’dangizga muvofiq keltiradigan qurbonliklaringizdan va ko‘ngildan chiqarib
beradigan nazrlaringizdan tashqari keltirilishi lozim.
39 Dalangizning hosilini yig‘ib bo‘lganingizdan keyin, yetti kun davomida Menga atab
Chayla bayramini nishonlanglar. Bayram yettinchi oyning o‘n beshinchi kunida
boshlansin. Bayramning birinchi va sakkizinchi kunlari to‘liq dam olinglar. 40 Birinchi
kuni daraxtlaringizning eng yaxshi mevalarini terib olinglar*, palma daraxtining
shoxlarini, suv bo‘yida o‘sadigan majnuntolning va boshqa serbarg daraxtlarning
novdalarini olib, yetti kun davomida Men, Egangiz Xudoning huzurida xursandchilik
qilinglar. 41 Menga atab bu bayramni har yili, yetti kun davomida nishonlanglar. Yilning

yettinchi oyida nishonlanadigan bu bayram sizlar uchun avlodlaringiz osha doimiy qonun–qoida bo‘lsin. 42 Yetti kun davomida chaylalarda yashanglar. Isroil xalqiga mansub bo‘lgan har bir kishi chaylada yashasin. 43 Shunda Men Isroil xalqini Misrdan olib chiqqanimda, sizlarni chaylalarda yashattirganimni avlodlaringiz bilishadi. Men Egangiz Xudoman.”

44 Shunday qilib, Muso Isroil xalqiga Egamiz belgilagan bayramlarni e’lon qildi.

24–BOB

Moychiroqlar

1 Egamiz Muso orqali 2 Isroil xalqiga quyidagi amrlarni berdi: toza zaytun moyidan olib kelinglar. Toki moychiroqlar har doim tun bo‘yi yonib tursin. 3 Horun moychiroqlarni Uchrashuv chodiriga, Ahd sandig‘ini* to‘sib turgan ichki parda oldiga o‘rnatsin. Moychiroqlar Egamizning huzurida oqshomdan ertalabgacha o‘chmay yonib tursin. Bu avlodlaringiz osha doimiy qonun–qoida bo‘lsin. 4 Horun moychiroqlarni toza oltindan yasalgan chiroqpoyaga o‘rnatsin. Moychiroqlar Egamizning huzurida doimo tun bo‘yi yonib tursin.

Xudoga nazr qilinadigan nonlar

5 Sifatli undan o‘n ikkita non* yop. Har bir non sakkiz kosa* undan yopilgan bo‘lsin. 6 Nonlarni Egamiz huzuridagi toza oltindan yasalgan xontaxta ustiga ikki qator qilib ter. Har bir qatorda oltitadan non bo‘lsin. 7 Har bir qatorga toza xushbo‘y tutatqidan qo‘y. Bu xushbo‘y tutatqi nonning o‘rniga olovda kuydirilib, Egamizga nazr qilinadi. 8 Horun nonlarni doimiy tarzda, har Shabbat kuni Isroil xalqi nomidan Egamiz oldiga qo‘ysin. Bu Isroil xalqining abadiy majburiyatidir. 9 Bu nonlar Horun va uning avlodiniki bo‘lsin. Ular bu nonlarni muqaddas joyda tanovul qilishsin*. Egamizga atab, olovda kuydiriladigan nazrlardan Horunning nasliga berilgan doimiy ulush shudir, u g‘oyat muqaddasdir.

To‘g‘ri va adolatli hukmning misoli

10-11 Dan qabilasidan bo‘lgan Dibri qizi Shalumit Misrlik bir kishiga turmushga chiqqan edi. Ularning bir o‘g‘li bor edi. Bir kuni o‘sha o‘g‘li Isroil xalqidan bo‘lgan bir odam bilan janjallashib qoldi. Janjal paytida Shalumitning o‘g‘li qarg‘anib, Xudoga shak keltirdi. Shunda uni Musoning oldiga olib kelishdi. 12 Egamizning hukmi ma’lum bo‘lgunga qadar uni qamab qo‘yishdi.

13 Egamiz Musoga dedi: 14 “Shakkokni qarorgohning tashqarisiga olib chiqinglar. Shak keltirganini eshitganlarning hammasi qo‘lini uning boshiga qo‘ysin, keyin butun jamoa uni toshbo‘ron qilsin. 15 Isroil xalqiga shu gapimni aytib qo‘y: «Meni qarg‘agan har qanday odam jazoga tortilsin. 16 Men, Egangizga shak keltirgan odamning jazosi o‘limdir. Butun jamoa uni toshbo‘ron qilsin. O‘sha shakkok kim bo‘lishidan qat’i nazar, musofir bo‘ladimi yoki Isroil xalqidanmi, o‘ldirilsin.

17 Odamning joniga qasd qilgan har qanday odam o‘ldirilsin. 18 Birovning molini o‘ldirib qo‘ygan odam egasiga tovon to‘lasin. Bunday vaziyatda jon evaziga jon degan qoida qo‘llanilsin. 19 Agar kimdir birovga shikast yetkazsa, unga ham xuddi shunday shikast yetkazilsin. 20 Siniq evaziga siniq, ko‘z evaziga ko‘z, tish evaziga tish bilan javob

qaytarilsin. Shikast yetkazganga xuddi shunday shikast yetkazilsin. 21 Jonivorni o‘ldirgan tovon to‘lasin, odamni o‘ldirgan esa o‘lim jazosini olsin. 22 Musofir uchun ham, Isroillik uchun ham qonun birdir. Men Egangiz Xudoman.»”

23 Muso bu so‘zlarni Isroil xalqiga aytib bo‘lgach, xalq shakkokni qarorgoh tashqarisiga olib chiqib, toshbo‘ron qildi. Shunday qilib, Isroil xalqi Egamizning Musoga bergan amrini ado etdi.

25–BOB

Yettinchi yil

1-2 Egamiz Muso orqali Isroil xalqiga Sinay tog‘ida shunday dedi: “Men sizlarga berayotgan yurtga kirganingizdan keyin, har yettinchi yili yeringizga dam bering. 3 Olti yil davomida dalalaringizga ekin ekinglar, uzumzorlaringizni butab, hosilini yig‘inglar. 4 Yettinchi yili* esa yer to‘liq dam olsin, Men, Egangizga bag‘ishlangan yil bo‘lsin. Shu yili dalalaringizga ekin ekmanglar, uzumzoringizni xomtok qilmanglar. 5 Yerdan o‘sib chiqqan boshoqlarni o‘rmanglar, xomtok qilinmagan tokdagi uzum boshlarini yig‘manglar. Yer bir yil to‘liq dam olsin. 6 Ammo o‘sha yili yerdan tabiiy holda o‘sib chiqqan hamma narsani yeyishingiz mumkin. Bular sizlar uchun, qulu cho‘rilaringiz uchun, mardikoru siznikida vaqtinchalik turgan musofirlar uchun ozuqa bo‘ladi. 7 Mol–holingiz va yurtingizdagi yovvoyi hayvonlar ham yer hosilidan oziqlanishadi.

Qutlug‘ yil

8 Yetti yilni* yetti marta qo‘shib sana, hammasi bo‘lib qirq to‘qqiz yil bo‘ladi. 9 So‘ng yettinchi oyning* o‘ninchi kuni, ya’ni Poklanish kuni* butun yurt bo‘ylab karnaylar chalinsin. 10 Elliginchi yilni muqaddas deb biling. O‘sha yili yurt bo‘ylab hamma odamga ozodlik e’lon qiling. Shu yil sizlar uchun Qutlug‘ yil bo‘lsin. Har kim ota–bobosining joyiga, o‘z qavmiga qaytib borsin. 11 Ha, elliginchi yil sizlar uchun Qutlug‘ yil bo‘lsin. Shu yili ekin ekmanglar, yerdan o‘sib chiqqan boshoqlarni o‘rmanglar, xomtok qilinmagan tokdagi uzum boshlarini yig‘manglar. 12 Bu Qutlug‘ yil bo‘lgani uchun, uni muqaddas deb bilinglar. To‘g‘ridan–to‘g‘ri daladan uzilgan hosilni yeyishingiz mumkin.

13 Qutlug‘ yil hammangiz ota–bobolaringizdan meros bo‘lib qolgan yerlaringizni qaytarib olish uchun u yerlarga boring.

14 Yeringizni qo‘shningizga sotganingizda yoki qo‘shnidan yer sotib olganingizda g‘irromlik qilmang. 15 Yer sotib olganingizda yerning narxi keyingi Qutlug‘ yilgacha qolgan yillarning hisobiga asoslangan bo‘lsin. Sotuvchi yerning narxini qolgan hosilli yillarning miqdoriga qarab belgilasin. 16 Agar hali ko‘p yil bor bo‘lsa, yerning bahosini oshirsin. Bordi–yu, ozroq yil qolgan bo‘lsa, bahosini kamaytirsin. Sotuvchi aslida yerni emas, balki yer beradigan hosil miqdorini sotadi. 17 G‘irromlik qilmang, Men, Xudoyingizdan qo‘rqing. Men Egangiz Xudoman.

Yettinchi yil muammosi

18 Qonun–qoidalarimni bitta qoldirmay bajaring, shunda yurtingizda tinch yashaysizlar. 19 Yer hosilini beradi, sizlar to‘yguningizcha uning ne’matlaridan yeysizlar. Yurtingizda bexatar yashaysizlar.

20 Sizlar:

— Ekin ekib hosil olmasak yettinchi yili nima yeymiz? — deb so‘rashingiz mumkin.

21 Men oltinchi yili hosilingizga baraka beraman. O‘sha yili sizlar uch yilga yetadigan
hosil yig‘ib olasizlar. 22 Sakkizinchi yili urug‘ ekkaningizda oltinchi yil davomida yiqqan
hosildan tanovul qilasizlar. To‘qqizinchi yili ham hosilingiz pishguncha hanuz eski
hosildan yeysizlar.

Mulk haqida

23 Yerni faqat vaqtinchaga soting, chunki yer Menikidir. Sizlar esa Mening yerimda
yashab yurgan musofir va kelgindisizlar. 24 O‘z yerini sotgan odamga yerini qayta sotib
olish imkoniyatini yaratib bering.
25 Agar yurtdoshingiz qashshoqlashib meros qilib olgan yerining bir qismini sotsa,
uning eng yaqin qarindoshi sotilgan yerni qaytarib sotib olsin. 26 Agar yerni qaytarib
sotib oladigan qarindoshi bo‘lmasa va u odamning o‘zi keyinchalik mol–dunyo topib,
yetarli mablag‘ yig‘sa, u o‘z yerini qaytarib sotib olishi mumkin. 27 Buning uchun u
Qutlug‘ yilgacha qolgan yillar davomida yerdan olinadigan daromadni hisoblab chiqib,
xaridorga to‘lasin, shundan keyin o‘z mulkini qaytarib olsin. 28 Bordi–yu, yerni qaytarib
sotib olishga qurbi yetmasa, yer xaridorning ixtiyorida Qutlug‘ yilgacha qolsin. Qutlug‘
yil yer asl egasiga qaytib berilsin.
29 Bordi–yu, birortasi devor bilan o‘ralgan shahar ichidagi uyini sotsa, sotilgan
kundan boshlab bir yil o‘tguncha uyini qaytarib sotib olishi mumkin. Uyni qaytarib sotib
olish muddati bir yildir. 30 Bir yil o‘tguncha u uyini qaytarib sotib olmasa, devor bilan
o‘ralgan shahar ichidagi bu uy xaridorning mulkiga aylanib, abadiy uning va naslining
ixtiyorida qoladi. Qutlug‘ yilda ham uy uning ixtiyoridan chiqmaydi. 31 Atrofi devor bilan
o‘ralmagan qishloqlardagi uylar dala sifatida hisoblansin. Bunday uylarni har qanday
vaqtda qaytarib sotib olish mumkin, Qutlug‘ yilda ular asl egasiga qaytarib berilsin.
32 Levilarning shaharlariga kelsak, levilar o‘z shaharlaridagi uylarini qaytarib sotib olish
huquqiga doimo ega bo‘lishsin. 33 Bordi–yu, levi bunday shahardagi sotilgan uyini
qaytarib sotib olmasa, bu uy unga Qutlug‘ yil qaytarib berilsin. Zotan, levilarga qarashli
shaharlardagi uylari levilarning Isroil xalqi orasidagi mulkidir. 34 Lekin ularning
shaharlari atrofidagi yerlar zinhor sotilmasin, chunki bu yerlar levilarning abadiy
mulkidir.

Kambag‘allarga qarz berish haqida

35 Agar biror yurtdoshingiz nochor ahvolga tushib, sizga qarab qolsa, unga yordam
bering. U orangizda g‘arib yoki musofirday yashasin. 36 Undan foydalanib pul ishlamang,
foyda ham olmang, Men, Xudoyingizdan qo‘rqing. Bunday yurtdoshingizning orangizda
yashashiga yo‘l qo‘ying. 37 Bergan qarzingizdan foiz talab qilmang, ovqatni o‘z narxidan
qimmatga sotmang. 38 Men Egangiz Xudoman. Men Xudoyingiz bo‘lishim uchun va
sizlarga Kan’on yurtini berish uchun sizlarni Misrdan olib chiqqanman.

Qullarni ozod qilish haqida

39 Agar yurtdoshingizdan birortasi o‘ta qashshoqlashib, o‘zini sizga sotsa, uni qulday
ishlatmang. 40 Unga mardikor yoki musofirday muomala qiling. U Qutlug‘ yilgacha
siznikida xizmat qilsin. 41 Qutlug‘ yil u bolalari bilan ozod bo‘lsin. Ular o‘z xonadoniga,
ota–bobolarining mulkiga qaytib borishsin. 42 Binobarin ular Mening qullarimdir, Men
ularni Misr yurtidan olib chiqqanman. Ularni qulday sotmanglar. 43 Ularga zulm
o‘tkazmanglar, Men, Xudoyingizdan qo‘rqinglar. 44 Agar qulu cho‘rilarga muhtoj
bo‘lsangiz, ularni atrofingizdagi xalqlardan sotib olishingiz mumkin. 45 Orangizda

yashayotgan musofirlardan va ularning Isroil yurtida tug‘ilgan bolalaridan ham qulu
cho‘rilar sotib olishingiz mumkin. Ular sizning mulkingiz bo‘ladi. 46 Ularni o‘zingizdan
keyin bolalaringizga meros qilib berishingiz mumkin. Ularga qullarga muomala
qilganday muomala qiling. Lekin Isroil xalqidan bo‘lgan birodarlaringizga zulm qilmang.
47 Agar orangizda yashayotgan musofir boylik orttirsa–yu, Isroil xalqidan bo‘lgan
birodaringiz esa qashshoqlashib o‘zini musofirga yoki musofirning qavmidan
bo‘lganlarga sotsa, 48 birodaringiz ozod bo‘lish huquqiga ega bo‘lsin. Uning aka–ukasi
ozodlik evaziga haqini to‘lab, uni ozod qilsin. 49 Shuningdek, amakisi, amakivachchasi
yoki boshqa bir qarindoshi ozodlik haqini to‘lab, uni ozod qilishi mumkin. Sotilgan
odamning o‘zi ham davlat orttirsa, o‘zini o‘zi ozod qila oladi. 50 Buning uchun u xaridori
bilan kelishib, o‘zini sotgan yildan boshlab Qutlug‘ yilgacha qolgan yillarning sonini
hisoblab chiqsin. Ozodligining bahosi o‘sha yillar davomida mardikorga to‘lanadigan ish
haqi asosida belgilansin. 51 Agar Qutlug‘ yilgacha hali ko‘p yillar bor bo‘lsa, ozodlik
bahosi xaridor to‘lagan narxga asoslangan bo‘lsin. 52 Bordi–yu, Qutlug‘ yilgacha oz
qolgan bo‘lsa, qolgan yillarni hisoblab, shunga yarasha ozodligining narxini to‘lasin.
53 Musofir sotib olgan birodaringizga bir yilga yollagan ishchiga muomalada bo‘lganday
muomala qilsin. Isroil xalqidan bo‘lgan birodaringizga zulm o‘tkazishiga yo‘l qo‘ymang.
54 Agar sotilgan birodaringiz ozodlik haqini to‘lab ozod bo‘lmasa, u Qutlug‘ yil bola–
chaqalari bilan ozod qilinsin. 55 Zotan, Isroil xalqi Mening qullarimdir, ularni Misr
yurtidan Men olib chiqqanman. Men Egangiz Xudoman.

26–BOB

Itoatkorlik evaziga beriladigan barakalar

1 O‘zingiz uchun butlar yasamang, o‘yib ishlangan tasvirlaru boshqa xudolarga
atalgan toshlarni o‘rnatmang. Yurtingizda butsimon toshlar o‘rnatib, ularga sajda
qilmang. Zotan, Men Egangiz Xudoman. 2 Shabbat kunlariga rioya qiling, muqaddas
makonimni izzat eting. Men Egangizman. 3 Agar qonunlarimga rioya qilib, amrlarimni
bitta qoldirmay bajarsangiz, 4 Men o‘z vaqtida yomg‘ir yog‘diraman. Yer hosilini beradi,
daraxtlar meva soladi. 5 G‘alla yanchish vaqti uzum terish paytiga ulanib ketadi, uzum
terish payti ekin–tikin vaqtiga ulanib ketadi. To‘yguningizcha non yeysiz, o‘z yurtingizda
bexatar yashaysiz. 6 Men yurtingizga tinchlik ato etaman, yotganingizda hech kim sizni
vahimaga solmaydi. Yurtingizdan yirtqich hayvonlarni haydab yuboraman. Zaminingiz
urush ko‘rmaydi. 7 G‘animlaringizni ta’qib qilasiz, ular qilichingizdan halok bo‘ladi.
8 Sizlardan beshtasi g‘animlarning yuztasini quvadi, yuztangiz o‘n mingtasini quvadi.
Ularni qilichdan o‘tkazasizlar. 9 Sizlarga yuz buraman, barakali qilib ko‘paytiraman.
Sizlar bilan qilgan ahdimga sodiq qolaman. 10 Eski hosilingizni yeb bo‘lmasingizdan,
yangisiga joy bo‘shatish uchun eskisini chiqarib tashlaysizlar. 11 Men orangizda
yashayman, sizlardan hazar etmayman. 12 Doimo orangizda bo‘laman. Men sizning
Xudoyingiz, sizlar esa Mening xalqim bo‘lasizlar. 13 Men Egangiz Xudoman. Sizlar
bundan buyon qul bo‘lmasligingiz uchun Men sizlarni Misrdan olib chiqqanman.
Qaddingizni rostlab yurishingiz uchun bo‘yinturug‘ingizni sindirganman.

Itoatsizlik evaziga beriladigan jazo

14 Agar Menga quloq solmasangiz, Mening amrlarimni bajarmasangiz,
15 qonunlarimni rad etsangiz, qoidalarimdan nafratlansangiz, amrlarimni bajarmay,

ahdimni buzsangiz, 16 Men boshingizga kulfat solaman, sizlarni tuzalmas kasallikka
duchor qilaman, isitmangizni chiqarib, koʻzingizning nurini olaman, joningizni iztirobga
solaman. Ekkan urugʻlaringiz behudaga ketar, chunki hosilingiz gʻanimlarga nasib etar.
17 Men yuzimni sizlarga qarshi buraman, dushmanlaringiz sizlarni magʻlub etadi.
Yovlaringiz ustingizdan hukmronlik qiladi. Sizlarni hech kim ta'qib qilmasa ham
tumtaraqay boʻlib qochasizlar. 18 Shunda ham Menga itoat qilmasangizlar, gunohlaringiz
uchun jazoni yetti karra kuchaytiraman. 19 Takabburona qaysarligingizni sindiraman,
osmonni temir kabi qattiq, yerni mis kabi zarang qilaman. 20 Mehnatingiz behudaga sarf
boʻlar: yeringiz hosil bermas, daraxtlaringiz meva solmas.

21 Shunda ham Menga qarshilik qilib itoat etmasangiz, gunohlaringizga yarasha yetti
karra koʻproq ta'ziringizni beraman. 22 Sizlarga qarshi yirtqich hayvonlarni yuboraman.
Ular sizlarni bolalaringizdan judo qiladi, mol–holingizni qirib yuboradi, shunda soningiz
kamayib, koʻchalaringiz huvullab qoladi.

23 Agar shundan ham saboq olmay, Menga qarshilik qilaversangiz, 24 Men ham
sizlarga qarshilik qilishni davom ettiraman. Oʻzim gunohlaringiz uchun yetti karra
koʻproq ta'ziringizni beraman. 25 Ahdimni buzganingiz uchun boshingizga qilich
keltiraman. Shaharlaringizga qochib berkinsangiz, oralaringizga oʻlat yuborib, sizlarni
gʻanimlar qoʻliga tutib beraman. 26 Rizq–roʻzingizni qirqaman. Oʻnta ayol bir tandirda
non yopadi, nonni hammaga oʻlchab berishadi. Sizlar yeysizlar–u, ammo toʻymaysizlar.

27 Bordi–yu, shunda ham Menga quloq solmay qarshilik qilaversangiz, 28 Men ham
gʻazab ustida sizlarga qarshilik qilaveraman. Gunohlaringiz uchun jazoni yetti karra
koʻpaytiraman. 29 Sizlar hatto oʻgʻil–qizlaringizning etini yeydigan boʻlasizlar. 30 Men
sajdagohlaringizni* buzib tashlayman, tutatqi qurbongohlaringizni vayron qilaman.
Jasadlaringizni jonsiz butlaringiz ustiga uyib tashlayman. Sizlardan hazar qilaman.
31 Shaharlaringizni vayron etaman, muqaddas joylaringizni buzib tashlayman.
Qurbonliklaringizning yoqimli hididan zavq olmayman. 32 Yurtingizni shu qadar xarob
qilamanki, u yerda oʻrnashib oladigan gʻanimlaringiz uning ahvolidan dong qotadi.
33 Sizlarni esa xalqlar orasiga tarqatib yuboraman, qilichimni yalangʻochlab sizlarni
ta'qib qilaman. Yurtingiz huvullab qoladi, shaharlaringiz xarobazorga aylanadi. 34 Sizlar
gʻanimlaringiz yerida boʻlganingizda yurtingiz dam oladi. Xarob boʻlib yotgan yillar
davomida yurtingiz orom oladi. 35 Vayronalar ichra yotib, dam oladi, chunki sizlar
yurtingizda yashab yurgan paytingizda yeringizga dam bermagan edingizlar.

36 Gʻanimlaringiz yurtida omon qolganlaringizning yuragiga vahima solaman. Sizlar
hilpirayotgan bargning ovozidan dahshatga tushasizlar. Qilichdan qochganday
qochasizlar. Hech kim sizni ta'qib qilmasa ham, qochib yiqilasizlar. 37 Hech kim sizni
quvlamasa ham, joningizni hovuchlab qochasizlar, bir–biringizga turtilib yiqilasizlar. Ha,
sizlar gʻanimlaringizga bas kela olmaysizlar. 38 Shunda xalqlar orasidan yoʻq boʻlib
ketasizlar, gʻanimlaringiz yurti sizni yutib yuboradi. 39 Omon qolganlaringiz gʻanimlar
yurtida oʻlasizlar. Oʻz gunohlaringiz va ota–bobolaringizning gunohlari tufayli adoyi
tamom boʻlasizlar.

40 Lekin oxiri sizlar oʻz gunohlaringizni va ota–bobolaringizning gunohlarini tan
olasizlar. Menga qilgan qarshiligu xiyonatga iqror boʻlasizlar. 41 Oʻsha gunohlaringiz
tufayli Men sizlarga qarshilik qilib, sizlarni gʻanimlaringiz yurtiga olib kelaman. Shunda
sizning sunnatsiz yuragingiz kamtarlikka toʻladi. Qilgan gunohlaringiz uchun jazo
tortasizlar. 42 Shunda Men Yoqub bilan qilgan ahdimni yodga olaman. Is'hoq va Ibrohim

bilan qilgan ahdimni ham yodimda tutaman, Men yurtni yodga olaman. 43 Huvullab
yotgan yurt orom olgan yillar davomida qilgan gunohlaringiz uchun jazo oladi. Axir,
sizlar qoidalarimni rad etishga jazm etdingizlar, qonunlarimdan hazar qildingizlar.
44 Shunday bo‘lsa–da, Men sizlarni g‘animlaringiz yurtida rad etmayman, sizdan hazar
qilmayman, tamomila qirib yubormayman. Sizlar bilan qilgan ahdimni buzmayman.
Zotan, Men Egangiz Xudodirman. 45 Men sizning manfaatingizni ko‘zlab, ota–
bobolaringiz bilan qilgan ahdimni yodimda tutaman. Men Xudoyingiz bo‘lishim uchun
ota–bobolaringizni ellarning ko‘zi oldida Misrdan olib chiqqanman. Men Egangizman.”

46 Egamiz Muso orqali Isroil xalqiga Sinay tog‘ida bergan farmonu qonun–qoidalar
shulardan iborat edi.

27–BOB

Egamizga keltiriladigan in’omlar to‘g‘risidagi qonun

1 Egamiz Muso orqali 2 Isroil xalqiga quyidagi qoidalarni berdi: agar birortangiz ont
ichib, Egamizga biror odamni bag‘ishlagan bo‘lsangiz, ontingizni ado etish uchun
quyidagi qiymatni to‘lang:

3 20 dan 60 yoshgacha bo‘lgan erkak uchun 50 bo‘lak kumush*,
4 20 dan 60 yoshgacha bo‘lgan ayol uchun 30 bo‘lak kumush*,
5 5 dan 20 yoshgacha bo‘lgan o‘g‘il bola uchun 20 bo‘lak kumush*,
5 dan 20 yoshgacha bo‘lgan qiz bola uchun 10 bo‘lak kumush*,
6 1 oylikdan 5 yoshgacha bo‘lgan o‘g‘il bola uchun 5 bo‘lak kumush*,
1 oylikdan 5 yoshgacha bo‘lgan qiz bola uchun 3 bo‘lak kumush*,
7 60 va undan yuqori yoshdagi erkak uchun 15 bo‘lak kumush*,
60 va undan yuqori yoshdagi ayol uchun 10 bo‘lak kumush.

8 Agar ont ichgan odam nochorligidan belgilangan qiymatni to‘lay olmasa, u
Egamizga bag‘ishlagan odamini ruhoniyning oldiga olib kelsin. Ruhoniy ont ichgan
odamning ahvoliga yarasha qiymatni belgilasin.
9 Agar siz ont ichib, qurbonlik qilishga yaraydigan jonivorni Egamizga bag‘ishlagan
bo‘lsangiz, Egamizga atalgan bu jonivor muqaddas hisoblansin. 10 Bunday jonivorni
boshqasiga almashtirib bo‘lmaydi. Yaxshisini yomoniga yoki yomonini yaxshisiga
ayirboshlamang. Jonivorning birini boshqasiga almashtiradigan bo‘lsangiz,
jonivorlarning ikkalasi ham muqaddas hisoblansin. 11 Agar Egamizga qurbonlik qilishga
yaramaydigan, harom hayvonni atagan bo‘lsangiz, o‘sha hayvonni ruhoniy oldiga olib
keling. 12 Ruhoniy hayvonning yaxshi yoki yomon ahvoliga qarab bahosini belgilasin va
uning qiymati ruhoniy belgilaganday bo‘lsin. 13 Bordi–yu, siz atagan hayvoningizni
qaytarib olmoqchi bo‘lsangiz, ruhoniy tomonidan belgilangan qiymat ustiga o‘sha
qiymatning beshdan bir qismini qo‘shib bering.
14 Agar odam Egamizga o‘z uyini bag‘ishlasa, ruhoniy uyni baholasin, uyning yaxshi
yoki yomon ahvoliga qarab qiymatini belgilasin va uning qiymati ruhoniy belgilaganday
bo‘lsin. 15 Mabodo uyni bag‘ishlagan odam uyini qaytarib olmoqchi bo‘lsa, u ruhoniy
belgilagan qiymat ustiga qiymatning beshdan bir qismini qo‘shib bersin. Shunda uy
yana uniki bo‘ladi.

16 Agar odam meros qilib olgan yerini Egamizga bag‘ishlamoqchi bo‘lsa, yerning
qiymati u yerga ekiladigan urug‘ning miqdoriga ko‘ra belgilansin. O‘n savat* urug‘lik
arpaning bahosi ellik bo‘lak kumush bo‘lsin. 17 Agar dala Qutlug‘ yili* bag‘ishlangan
bo‘lsa, dalaning qiymati belgilangan bahoda qolsin. 18 Bordi–yu, dala Qutlug‘ yildan
keyin bag‘ishlangan bo‘lsa, ruhoniy dalaning qiymatini keyingi Qutlug‘ yilgacha qolgan
yillarning soniga ko‘ra, belgilasin. Dalaning asl qiymati kamaytirilsin. 19 Dalani
bag‘ishlagan odam dalasini qaytarib olmoqchi bo‘lsa, u belgilangan qiymat ustiga dala
qiymatining beshdan bir qismini qo‘shib bersin. Shunda dala yana uniki bo‘ladi.
20 Bordi–yu, u dalasini qaytarib sotib olmasa va dala boshqa birovga sotilgan bo‘lsa,
dalaning egasi o‘z dalasini qaytarib sotib olish huquqidan mahrum qilinsin. 21 Keyingi
Qutlug‘ yil kelganda bu dala Egamizga tamomila bag‘ishlangan bo‘lib, muqaddas
hisoblanadi. Dala ruhoniylarga qarashli bo‘ladi.
22 Agar biror odam sotib olgan, ya’ni meros bo‘lib qolmagan dalasini Egamizga
bag‘ishlasa, 23 ruhoniy dalaning qiymatini Qutlug‘ yilgacha qolgan yillar soni asosida
belgilasin. U odam ruhoniy belgilagan qiymatni o‘sha kuniyoq Egamizga ehson sifatida
keltirsin. 24 Qutlug‘ yil esa dala merosxo‘rga — kimdan sotib olingan bo‘lsa, o‘sha
odamga qaytarib berilsin. 25 Har qanday narsaning qiymatini belgilashda Muqaddas
chodirda ishlatiladigan kumush birligi asos qilib olinsin. Har bir kumush bo‘lagining
og‘irligi 2,5 misqol* bo‘lsin.
26 Molu qo‘ylaringizning birinchi tug‘ilgan bolalarini Egamizga bag‘ishlamang, ular
shusiz ham Egamizga tegishlidir. 27 Harom hayvonning to‘ng‘ich bolasini qaytarib sotib
olishingiz mumkin. Buning uchun belgilangan qiymatni to‘lab, buning ustiga qiymatning
beshdan bir qismini qo‘shib bering. Agar uni qaytarib sotib olmasangiz, ruhoniy uni
boshqa birovga belgilagan qiymatga sotib yuborishi mumkin.
28 Egamizga tamomila bag‘ishlangan har qanday odamni, jonivor yoki meros qilib
olingan yerni qaytarib sotib olish yoki sotib yuborish mumkin emas. Egamizga tamomila
bag‘ishlangan har qanday narsa Egamizga abadiy tegishli hisoblanadi. 29 Hatto Egamizga
tamomila bag‘ishlangan odamni ham qaytarib sotib olishingiz mumkin emas. Uni
o‘ldirishingiz lozim.
30 Yer hosilidan va daraxt mevalaridan olingan ushr* ham Egamiznikidir. Bular
Egamiz uchun muqaddasdir. 31 Agar birortasi ushrini qaytarib sotib olmoqchi bo‘lsa,
ushrning qiymati ustiga qiymatning beshdan bir qismini qo‘shib bersin. 32 Poda va
suruvingizdan olingan ushrni — sanalgan har o‘ninchi jonivorni Egamizga bag‘ishlang.
33 Ushr qilib olingan jonivorni tanlamang, uni yaxshisi yoki yomoniga almashtirmang.
Agar almashtiradigan bo‘lsangiz, jonivorlarning ikkalasi ham muqaddas hisoblansin,
ularni qaytarib sotib olishingiz mumkin emas.

34 Egamiz Muso orqali Isroil xalqiga Sinay tog‘ida bergan amrlar shulardan iborat
edi.

IZOHLAR

1:3 *bu qurbonligingizni* — yoki *sizni*. Ibroniycha matnda bu oʻrinda ishlatilgan olmosh qurbonlikka yoki qurbonlikni keltirayotgan odamga ishora qiladi.

1:14 *kaptar yoki musicha* — buqa, qoʻchqor yoki takani qurbonlik qilishga qurbi yetmagan kambagʻal odamlar bularning oʻrniga kaptar yoki musichani qurbonlik qilishlari mumkin edi (5:7, 12:8 ga qarang).

1:16 *Jigʻildonini, ichidagi narsalari bilan birga, sugʻurib olib…* — yoki *Jigʻildoni va patlarini sugʻurib olib…*.

2:13 *…tuz Xudoyingiz sizlar bilan tuzgan ahdni bildiradi* — tuz barqarorlik va oʻzgarmaslik ramzidir, chunki qadimda tuz ba'zi oziq–ovqat mahsulotlarini achib qolishdan saqlash uchun ishlatilgan. Bu oʻrinda tuz ahdning barqarorligini bildiradi (Sahroda 18:19, 2 Solnomalar 13:5 ga qarang). Shu ahdga koʻra, Xudo hech qachon Unga sajda qilganlarni tark etmaydi, sajda qiluvchilar esa Xudoning qonunlariga doimo rioya qilishlari shart.

3:4 *jigarning a'lo qismi* — ibroniycha matndan soʻzma–soʻz tarjimasi *jigarning turtib chiqqan joyi* (shu bobning 10, 15–oyatlarida ham bor). Bu oʻrinda nima uchun jigarning aynan shu qismi haqida soʻz ketgani aniq emas. Ba'zi olimlarning fikri boʻyicha, jigarning bu qismi eng a'lo qism hisoblanib, Egamizga atab kuydirishga loyiq edi. Boshqalarning aytishicha esa, butparast xalqlar jigarning bu qismini fol ochishda ishlatganlari uchun, uni kuydirib yoʻq qilish kerak edi. Boshqa olimlar esa bu oʻrindagi ibroniycha soʻzni "jigarni qoplab turgan parda" deb talqin qilishadi.

4:7 *tutatqi qurbongohining shoxlari* — tutatqi qurbongohining tepasidagi toʻrt burchagidan toʻrtta shox boʻrtib chiqqan edi.

4:9 *jigarning a'lo qismi* — ibroniycha matndan soʻzma–soʻz tarjimasi *jigarning turtib chiqqan joyi*. 3:4 izohiga qarang.

4:25 *qurbongoh shoxlari* — qurbongohning tepasidagi toʻrt burchagidan toʻrtta shox boʻrtib chiqqan edi.

5:11 *toʻrt kosa* — ibroniycha matnda *efaning oʻndan bir qismi*, taxminan 2 litrga toʻgʻri keladi.

5:15 *…kumushni olib keling* — ibroniycha matnda *…kumushni olib keling. Kumush Muqaddas chodirda ishlatiladigan shaqalga koʻra oʻlchangan*. Muqaddas chodirda ishlatilgan standart shaqal taxminan 11 grammga toʻgʻri keladi.

6:18 *Bu nazrga tekkan har qanday narsa muqaddas boʻladi* — yoki *Bu nazrga tekkan har qanday odam muqaddas boʻladi* yoxud *Bu nazrga tegmoqchi boʻlgan har qanday odam poklangan boʻlishi shart*.

6:20 *toʻrt kosa* — ibroniycha matnda *efaning oʻndan bir qismi*, taxminan 2 litrga toʻgʻri keladi.

6:27 *Qurbonlik goʻshtiga tekkan har qanday narsa muqaddas boʻladi* — shu bobning 18–oyati izohiga qarang.

6:28 *Goʻsht pishirilgan sopol idish sindirilsin* — sopol idishni goʻshtning yogʻlaridan

butunlay tozalab bo‘lmasdi. Qaynatilgan qurbonlik go‘shti tufayli idish muqaddas hisoblanardi, shuning uchun uni boshqa idishlar singari qayta ishlatish mumkin emas edi.

6:30 *bunday qurbonlik go‘shti* — 4:1-21 ga qarang.

7:4 *jigarning a’lo qismi* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *jigarning turtib chiqqan joyi*. 3:4 izohiga qarang.

7:6 *Uni muqaddas joyda tanovul qilishsin…* — 6:16 ga qarang.

8:2 *muqaddas qiladigan moy* — zaytun moyi va ziravorlarning maxsus aralashmasidan tayyorlanib, faqat ruhoniylar tomonidan diniy marosimlarni ado etish uchun ishlatilgan (Chiqish 30:22-33 ga qarang).

8:7-8 *…efod…[8]…ko‘krakpech…* — lug‘atdagi RUHONIY so‘zi ostida berilgan OLIY RUHONIY iborasiga ishlangan rasmlarga qarang.

8:8 *Urim va Tummim* — ayrim hollarda ruhoniylar Xudoning xohishini bilish uchun foydalanadigan ikkita muqaddas narsa. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun Chiqish 28:15 ning ikkinchi izohiga qarang.

8:15 *qurbongohning shoxlari* — 4:25 izohiga qarang.

8:16 *jigarning a’lo qismi* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *jigarning turtib chiqqan joyi* (shu bobning 25–oyatida ham bor). 3:4 izohiga qarang.

8:23 *solinchak* — quloqning pastki yumshoq qismi.

8:26 *xamirturushsiz nonlar solingan savat* — shu bobning 2–oyatiga va Chiqish 29:1-3 ga qarang.

9:9 *qurbongohning shoxlari* — 4:25 izohiga qarang.

9:10 *jigarning a’lo qismi* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *jigarning turtib chiqqan joyi* (shu bobning 19–oyatida ham bor). 3:4 izohiga qarang.

10:6 *…sochingizni to‘zitmanglar…* — yoki *…bosh yalang yurmanglar….*

10:7 *muqaddas qiladigan moy* — 8:2 izohiga qarang.

11:4 *…hayvonlardan quyidagilarni tanovul qilmang* — ibroniycha matndagi shu bobning 5-30–oyatlarida aytib o‘tilgan ba’zi hayvonlar, qushlar va hasharotlar qanday hayvon, qush yoki hasharot ekanligi bahsli.

13:2 *teri kasalligi* — bu ibora ibroniychada har xil teri kasalliklariga nisbatan ishlatilgan so‘zning tarjimasidir. Odatda bu ibora moxov kasalligiga ishora deb tushuniladi. Teri kasalliklaridan birortasiga yo‘liqqan kishi harom hisoblanar edi. Xasta odam kasalligini boshqalarga yuqtirmasligi va ularni harom qilmasligi uchun, boshqalardan ajratib qo‘yilar edi (Shu bobning 45-46–oyatlariga qarang).

13:2 *uning o‘g‘illari* — yoki *uning nasli*. Qonunga ko‘ra, faqat Horun va uning naslidan bo‘lgan o‘g‘illar ruhoniy bo‘lib xizmat qila olishardi. Matnning asosiy mazmuni kasal odamni ruhoniyga ko‘rsatishdan iborat.

13:45 *…sochini to‘zitsin…* — yoki *…bosh yalang yursin….*

14:2 *teri kasalligi* — bu ibora ibroniychada har xil teri kasalliklariga nisbatan ishlatilgan so‘zning tarjimasidir. 13:2 ning birinchi izohiga qarang.

14:4 *issop o‘ti* — bu o‘rindagi ibroniycha so‘z mayda ko‘k gulli, barglari muattar hidli o‘simlikni bildiradi.

14:10 *o‘n ikki kosa* — ibroniycha matnda *efaning o‘ndan uch qismi*, taxminan 6 litrga to‘g‘ri keladi.

14:10 *bir kosa* — ibroniycha matnda *bir lo‘g*, taxminan 300 millilitrga to‘g‘ri keladi. Shu bobning 12, 15, 21, 24–oyatlarida ham bor.

14:14 *solinchak* — quloqning pastki yumshoq qismi.

14:21 *to‘rt kosa* — ibroniycha matnda *efaning o‘ndan bir qismi*, taxminan 2 litrga to‘g‘ri keladi.

16:1-2 *Horunning ikki o‘g‘li…nobud bo‘lganlaridan so‘ng…* — 10:1-2 ga qarang.

16:1-2 *…Eng muqaddas xonaga xohlagan paytida kirmasin* — oliy ruhoniy Eng muqaddas xonaga faqat yilda bir marta kirishi mumkin edi. Shu bobning 29-34–oyatlariga qarang.

16:8 *…qur’a tashlasin…* — qur’a tashlashda yog‘och bo‘laklari yoki toshlar ishlatilgan bo‘lib, shu orqali Xudoning xohish–irodasi aniqlangan. Ba’zan odamlar qur’a tashlab, Xudodan biror ishni qanday yoki qachon qilish kerakligini so‘rashgan.

16:13 *Ahd sandig‘i* — ibroniycha matnda *Guvohlik sandig‘i*, Ahd sandig‘ining yana bir nomi. Ibroniycha matndagi iboraning *guvohlik* so‘zi o‘nta amr yozilgan ikkita tosh lavhaga ishora qiladi. Ikkala tosh lavha Sandiqning ichida saqlanib, Xudo va Uning xalqi o‘rtasida tuzilgan ahdning dalili, ya’ni toshga bitilgan guvohlik bo‘lib xizmat qilardi.

16:18 *qurbongohning har bir shoxi* — 4:25 izohiga qarang.

16:29 *Yettinchi oy* — ibroniy kalendarining Tishri oyi nazarda tutilgan (Tishri oyi Itanim oyi deb ham ataladi). Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan sentabrning o‘rtasidan boshlanadi.

16:34 *Egamiz nimani amr etgan bo‘lsa, Muso hammasini ado etdi* — yoki *Musoga Egamiz nimani amr etgan bo‘lsa, Horun hammasini ado etdi*.

17:7 *echki jinlar* — odamlarning tasavvuriga ko‘ra, bu jinlar sahroda yashardilar.

18:21 *Bolalaringizning birortasini Mo‘laxga qurbonlik qilmang…* — ibroniycha matndan. Qadimiy yunoncha tarjimada *Bolalaringizning birortasini Mo‘laxga xizmat qildirmang…*.

19:27-28 *Chakkangizdagi sochlaringizni qirmang…[28]…teringizni teshib surat solmang* — bu odatlar butparast xalqlarga xos edi.

19:29 *Qizingizni fohishalik qilishga undamang…* — o‘sha paytlarda Kan’ondagi butparast xalqlar o‘z sajdagohlarida diniy vazifalardan birini fahsh orqali bajarardilar. Butparast xalqlarning udumlariga ko‘ra, odamlar fohishalar va fohishlar bilan jinsiy aloqa qilish orqali o‘z xudolariga topinardilar, xudolaridan farovonlik ato qilishni so‘rardilar. Lekin Egamiz Isroil xalqiga bu yo‘l bilan sajda qilishni qat’iyan man etgan (Qonunlar 23:17-18 ga qarang).

19:36 *o‘lchov tog‘orayu kosalaringiz* — ibroniycha matnda *efa va xin*. Bular o‘lchov birliklari bo‘lib, *efa* quruq narsalarni o‘lchash uchun, *xin* esa suyuqliklarni o‘lchash uchun ishlatilardi.

20:21 *Agar erkak akasining yoki ukasining xotiniga uylansa, yaramas ish qilgan bo‘ladi* — erkak o‘z akasi yoki ukasining tirikligi paytida uning xotiniga uylanishi qat’iyan man etilardi. Faqatgina akasi yoki ukasi farzand ko‘rmay vafot etgandagina, u marhumning beva qolgan xotiniga uylanishga burchli edi. Bundan maqsad marhum qondoshining naslini davom ettirish edi (Qonunlar 25:5-6 ga qarang).

20:24 *sut va asal oqib yotgan yurt* — nihoyatda hosildor yerni bildiruvchi ibora. Mo‘l–ko‘l sut — mol uchun ko‘m–ko‘k yaylovlarning ko‘pligini bildiradi. Asal — xurmodan olinadigan quyuq, shirin murabboga ishora bo‘lishi mumkin. Murabboning mo‘lligi yaxshi hosil beradigan yerni bildiradi.

21:5 *…sochini qirmasin…badanini tilmasin* — 19:27-28 ga va o‘sha oyatlarning izohiga qarang.

21:10 *…sochini to‘zitmasin…* — yoki *…bosh yalang yurmasin….*

21:12 *muqaddas qiladigan moy* — 8:2 izohiga qarang.

22:4 *teri kasalligi* — bu ibora ibroniychada har xil teri kasalliklariga nisbatan ishlatilgan so‘zning tarjimasidir. 13:2 ning birinchi izohiga qarang.

22:29 *shukrona qurbonligi* — 7:11-15 ga qarang.

23:5 *Birinchi oy* — ibroniy kalendarining Abib oyi nazarda tutilgan (Abib oyi Nison oyi deb ham ataladi). Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan martning o‘rtasidan boshlanadi.

23:5 *Fisih ziyofati* — Isroil xalqining Misrdagi qullikdan ozod bo‘lishi munosabati bilan nishonlangan ziyofat (Chiqish 12:1-42 ga qarang).

23:6 *xamirturushsiz non bayrami* — yetti kunlik bayram bo‘lib, Fisih ziyofati singari, Isroil xalqining Misrdagi qullikdan ozod bo‘lganini nishonlash uchun o‘tkazilardi (Chiqish 12:14-20, 13:3-10 ga qarang).

23:10 *har yili yig‘ishtirgan hosilingiz* — bahorning Abib oyida pishadigan arpa hosiliga ishora (shu bobning 5–oyatiga berilgan birinchi izohga qarang).

23:13 *sakkiz kosa* — ibroniycha matnda *efaning o‘ndan ikki qismi*, taxminan 4 litrga to‘g‘ri keladi (shu bobning 17–oyatida ham bor).

23:13 *ikki kosa* — ibroniycha matnda *chorak xin*, taxminan 1 litrga to‘g‘ri keladi.

23:16 *yangi don* — bug‘doyning ilk hosiliga nisbatan aytilgan (Chiqish 34:22 ga qarang).

23:24 *Yettinchi oy* — 16:29 izohiga qarang.

23:27 *Yettinchi oy* — 16:29 izohiga qarang.

23:27 *Poklanish kuni* — 16:1-34 ga qarang.

23:32 *…kechqurundan…kechqurungacha…* — qadimda Isroil xalqining urf–odatiga ko‘ra, yangi kun quyosh botgandan keyin boshlanib, keyingi kuni quyosh botguncha davom etar edi.

23:34 *Yettinchi oy* — 16:29 izohiga qarang.

23:40 *…daraxtlaringizning eng yaxshi mevalarini terib olinglar…* — yoki *…eng yaxshi daraxtlaringizning shoxlarini olinglar….*

24:3 *Ahd sandig‘i* — ibroniycha matnda *Guvohlik*, Ahd sandig‘ining yana bir nomi. 16:13

izohiga qarang.

24:5 *o‘n ikkita non* — bu nonlar Isroil xalqining o‘n ikkita qabilasi uchun xontaxtaga qo‘yilgan bo‘lib, Egamizning Muqaddas chodirda zohir bo‘lishini aks ettiruvchi timsol edi. Shuningdek, Xudo Isroil xalqining qudrati va ta’minlovchisi ekanligidan darak berib turgan.

24:5 *sakkiz kosa* — ibroniycha matnda *efaning o‘ndan ikki qismi*, taxminan 4 litrga to‘g‘ri keladi.

24:9 *Ular bu nonlarni muqaddas joyda tanovul qilishsin* — 6:16 ga qarang.

25:4 *Yettinchi yili* — Chiqish 23:10-11 ga qarang.

25:8 *Yetti yil* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *Yetti Shabbat yili*. Har yettinchi yili *Shabbat yili* deb hisoblangan (shu bobning 1-4–oyatlariga qarang).

25:9 *yettinchi oy* — 16:29 izohiga qarang.

25:9 *Poklanish kuni* — 16:1-34, 23:26-32 ga qarang.

26:30 *sajdagoh* — ibroniycha matnda *bamax*, ya’ni “tepalik”. Kan’on xudolariga topinadigan joylar *bamax* deb atalardi. Odatda bu sajdagohlar tepaliklarda joylashgan bo‘lib, u yerda Kan’on xudolarining tasvirlari va qurbonliklar keltirish uchun qurbongoh bo‘lardi.

27:3 *50 bo‘lak kumush* — ibroniycha matnda *Muqaddas chodirda ishlatiladigan shaqalga ko‘ra o‘lchangan 50 shaqal kumush*. Muqaddas chodirda ishlatilgan standart shaqal taxminan 11 grammga to‘g‘ri keladi, demak, 50 kumush bo‘laklar og‘irligi taxminan 550 gramm edi.

27:4 *30 bo‘lak kumush* — ibroniycha matnda *30 shaqal kumush*, taxminan 330 grammga to‘g‘ri keladi.

27:5 *20 bo‘lak kumush* — ibroniycha matnda *20 shaqal kumush*, taxminan 230 grammga to‘g‘ri keladi.

27:5 *10 bo‘lak kumush* — ibroniycha matnda *10 shaqal kumush*, taxminan 110 grammga to‘g‘ri keladi. Shu bobning 7–oyatida ham bor.

27:6 *5 bo‘lak kumush* — ibroniycha matnda *5 shaqal kumush*, taxminan 55 grammga to‘g‘ri keladi.

27:6 *3 bo‘lak kumush* — ibroniycha matnda *3 shaqal kumush*, taxminan 33 grammga to‘g‘ri keladi.

27:7 *15 bo‘lak kumush* — ibroniycha matnda *15 shaqal kumush*, taxminan 165 grammga to‘g‘ri keladi.

27:16 *O‘n savat* — ibroniycha matnda *bir ho‘mr*, taxminan 220 litrga to‘g‘ri keladi.

27:17 *Qutlug‘ yil* — 25:8-34 ga qarang.

27:25 *...og‘irligi 2,5 misqol...* — ibroniycha matnda *...og‘irligi 20 gera bo‘lgan shaqal...*. 20 gera taxminan 11 grammga to‘g‘ri keladi.

27:30 *ushr* — har qanday daromadning o‘ndan bir qismi. Qonunlar 14:22-29, 26:12-13 ga qarang.

SAHRODA

(TAVROTNING TO‘RTINCHI KITOBI)

Kirish

Sahroda kitobi Tavrotning to‘rtinchi kitobidir. Mazkur kitobda Isroil xalqining Misrdagi qullikdan ozod bo‘lib chiqqandan keyingi tarixi bayon etiladi. Kitobda Isroil xalqining Sinay tog‘idan Kan’on yurtiga qilgan qirq yillik safari davomida sahroda yuz bergan voqealar hikoya qilinadi. Shu sababdan kitob “Sahroda” deb nomlangan. Sinay sahrosi hozirgi Misrning shimoli–sharqidadir.

Kitobni uch qismga bo‘lish mumkin. Birinchi qismda (1:1-10:10) Xudo Musoga: “Urushga yaroqli hamma erkaklarni sanab chiq!” deb amr beradi. So‘ng Isroil xalqining qarorgohda joylashish tartibi va Levi qabilasining Uchrashuv chodiri atrofida qay tarzda o‘rnashishi to‘g‘risida Musoga batafsil ko‘rsatmalar beradi. Shu yo‘l bilan Xudo Isroil xalqini janglarga shay holatga keltiradi.

Ikkinchi qismda (10:11-21:20) Isroil xalqining sahroda tortgan mashaqqatlari haqida hikoya qilinadi. Isroil xalqi sahrodagi hayotdan ko‘p noliydi, hatto Xudoga va Musoga qarshi isyon ko‘taradi. Ular Kan’on yurtida istiqomat qilayotgan qudratli xalqlar to‘g‘risida eshitgandan keyin, Xudoga itoat etmay, Kan’on yurtiga hujum qilishdan bosh tortadi. Shuning uchun Xudo Isroil xalqini jazolaydi. Oqibatda, ular qirq yil sahroda darbadar kezishadi, shu vaqt mobaynida xalqning ro‘yxatga kirgan, urushga yaroqli butun avlodi o‘lib ketadi. Xudo Isroil xalqining yangi avlodini O‘zi va’da qilgan yurtga boshlaydi. Nihoyat, xalq Muso boshchiligida Edom yurtidan Mo‘ab yurti tomon yo‘l oladi.

Sahroda kitobining uchinchi qismi (21:21-36:13) Isroil xalqining Iordan daryosi sharqidagi yerlarni egallashi to‘g‘risidagi voqealar bilan boshlanadi. Mo‘ab shohi Isroil xalqini la’natlash uchun begona xalqdan bo‘lgan Balom payg‘ambarni yollaydi. Lekin Balom Isroil xalqini qayta–qayta duo qiladi. Shu orqali Xudo O‘z xalqiga bo‘lgan sadoqatini namoyon qiladi, ularning itoatsizligiga qaramay, ezgu niyatlarini amalga oshirmoqchi ekanini ko‘rsatadi.

So‘ng Isroil xalqi Iordan daryosidan o‘tishga va g‘arbdagi Kan’on yurtini zabt etishga tayyorgarlik ko‘radi. Isroil xalqining ba’zi qabilalari Iordan daryosining sharqiga o‘rnashishga qaror qilishadi. Isroil xalqining urushga yaroqli yangi avlodi ro‘yxatga olinadi, so‘ng Xudo Yoshuani Musoning o‘rniga Isroilning navbatdagi yo‘lboshchisi qilib tayinlaydi.

Sahroda kitobida isyonkor, ruhan tushkun, Xudodan umidini uzgan xalq to‘g‘risida hikoya qilinadi. Shuningdek, kitobda Xudoning O‘z xalqiga ko‘rsatgan mehribonligi, ularni janglarda himoya qilgani, qaqragan sahroda ularga yegulik va suv ato etgani to‘g‘risidagi voqealar ham bayon qilinadi.

1–BOB

Isroil xalqi ilk bor ro‘yxatga olinadi

[1] Isroil xalqi Misr yurtini tark etib*, Sinay sahrosiga kelganiga ikki yilu ikki oy bo‘ldi.

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

Ikkinchi oyning* birinchi kunida Egamiz Uchrashuv chodirida Musoga shunday dedi: 2-3 “Sen va Horun jamiki Isroil xalqini urug‘i, xonadoni bo‘yicha sanab chiqinglar. Urushga yaroqli bo‘lgan yigirma va undan yuqori yoshdagi hamma erkaklarni guruhlarga bo‘lib, nomma–nom ro‘yxatini tuzinglar. 4 Har bir qabiladan bittadan urug‘boshi sizlarga yordam bersin. 5 Sizlarga yordam beradigan urug‘boshilarning ismi quyidagichadir:

Ruben qabilasidan — Shaduvor o‘g‘li Elizur.
6 Shimo‘n qabilasidan — Zurishaday o‘g‘li Shalumiyol.
7 Yahudo qabilasidan — Ominadav o‘g‘li Naxsho‘n.
8 Issaxor qabilasidan — Zuvor o‘g‘li Natanil.
9 Zabulun qabilasidan — Xalon o‘g‘li Eliyob.
10 Yusuf o‘g‘li Efrayim qabilasidan — Omihud o‘g‘li Elishama.
Yusuf o‘g‘li Manashe qabilasidan — Padozur o‘g‘li Gamaliyol.
11 Benyamin qabilasidan — Gido‘nax o‘g‘li Avidon.
12 Dan qabilasidan — Omishaday o‘g‘li Oxazar.
13 Osher qabilasidan — Oxron o‘g‘li Paxiyol.
14 Gad qabilasidan — Duvel o‘g‘li Eliasaf.
15 Naftali qabilasidan — Enan o‘g‘li Oxir.”

16 Jamoa orasidan tanlangan ana shu urug‘boshilar Isroil qabilalarining yo‘lboshchilari edi.

17-19 Muso va Horun urug‘boshilar bilan birgalikda ikkinchi oyning* birinchi kunida butun jamoani yig‘ishdi. Ular Isroil xalqining barcha urug‘larini va xonadonlarini aniqlab chiqishdi. So‘ng Musoga Egamiz amr etganday, jamoaning yigirma va undan yuqori yoshdagi hamma erkaklarini nomma–nom alohida ro‘yxatga olishdi. Shu tariqa Muso Sinay sahrosida Isroil xalqini sanab chiqdi.

20-21 Urug‘i va xonadoni bo‘yicha nomma–nom ro‘yxatga olingan, yigirma va undan yuqori yoshdagi urushga yaroqli erkaklarning soni* quyidagicha edi:

Isroilning* to‘ng‘ich o‘g‘li Ruben qabilasidan — 46.500 nafar odam,
22-23 Shimo‘n qabilasidan — 59.300 nafar odam,
24-25 Gad qabilasidan — 45.650 nafar odam,
26-27 Yahudo qabilasidan — 74.600 nafar odam,
28-29 Issaxor qabilasidan — 54.400 nafar odam,
30-31 Zabulun qabilasidan — 57.400 nafar odam,
32-33 Yusuf o‘g‘li Efrayim qabilasidan — 40.500 nafar odam,
34-35 Yusuf o‘g‘li Manashe qabilasidan — 32.200 nafar odam,
36-37 Benyamin qabilasidan — 35.400 nafar odam,
38-39 Dan qabilasidan — 62.700 nafar odam,
40-41 Osher qabilasidan — 41.500 nafar odam,
42-43 Naftali qabilasidan — 53.400 nafar odam.

44 Muso, Horun va Isroil xalqining o‘n ikki urug‘boshisi sanab chiqqan odamlar ana shular edilar. Ularning hammasi ota–bobolarining nasli bo‘yicha ro‘yxatga olindi.
45 Xullas, Isroil xalqining yigirma va undan yuqori yoshdagi urushga yaroqli hamma erkaklari xonadonlari bo‘yicha sanalganda, 46 603.550 ta chiqdi.

47 Levi qabilasi esa bu ro‘yxatga kiritilmagan edi, 48 chunki Musoga Egamiz shunday
degandi: 49 “Levi qabilasini ro‘yxatga kiritma, ularni Isroil xalqi bilan birga sanama.
50 Levilarga Muqaddas ahd chodirini*, uning hamma ashyolarini va Chodirga tegishli
bo‘lgan barcha narsalarni topshir. Yo‘lga chiqqanlaringizda, levilar Chodirni va undagi
hamma ashyolarni ko‘tarib yursinlar. Chodirni asrab–avaylab, uning yoniga o‘z
chodirlarini tiksinlar. 51 Har safar Muqaddas chodir ko‘chirilganda, levilar Chodirni
yig‘ishsin. Qarorgoh qurganingizda esa Chodirni yana o‘rnatishsin. Chodirning yaqiniga
borgan boshqa har qanday odam uchun jazo o‘limdir. 52 Qolgan Isroil qabilalari o‘z
qarorgohlarida guruh–guruh bo‘lib joylashsin. 53 Isroil xalqi Mening qahr–g‘azabimga
uchramasligi uchun, levilar o‘z chodirlarini Muqaddas ahd chodiri atrofida o‘rnatib,
o‘sha yerda Chodirni qo‘riqlashsin.”
54 Musoga Egamiz qanday amr etgan bo‘lsa, Isroil xalqi shuni qildi.

2–BOB

Isroil qabilalarining qarorgohdagi joylashuv tartibi

1 Egamiz Muso bilan Horunga yana dedi: 2 “Isroil xalqining har bir qabilasi
chodirlarini o‘z qarorgohida, o‘z xonadoni bayroqlari ostida joylashtirsin. Ular
chodirlarini Uchrashuv chodirining aylanasiga, undan ma’lum bir masofada tikishsin.

Sharqiy qarorgoh

3 Uchrashuv chodirining sharq tomonida chodir tikadigan qabilalar Yahudo
qarorgohida guruh–guruh bo‘lib joylashsin. Yahudo qabilasining yo‘lboshchisi
Ominadav o‘g‘li Naxsho‘ndir. 4 Uning sanoqqa kirgan sipohlari 74.600 tadir.
5 Undan keyin Issaxor qabilasi chodirlarini joylashtirsin. Issaxor qabilasining
yo‘lboshchisi Zuvor o‘g‘li Natanildir. 6 Uning sanoqqa kirgan sipohi 54.400 tadir.
7 Undan keyin esa Zabulun qabilasi chodirlarini joylashtirsin. Zabulun
qabilasining yo‘lboshchisi Xalon o‘g‘li Eliyobdir. 8 Uning sanoqqa kirgan sipohi
57.400 tadir.
9 Yahudo qarorgohidagi sanoqqa kirgan sipohlarning hammasi 186.400 tadir.
Birinchi bo‘lib ular yo‘lga chiqishsin.

Janubiy qarorgoh

10 Uchrashuv chodirining janub tomonida chodir tikadigan qabilalar Ruben
qarorgohida guruh–guruh bo‘lib joylashsinlar. Ruben qabilasining yo‘lboshchisi
Shaduvor o‘g‘li Elizurdir. 11 Uning sanoqqa kirgan sipohlari 46.500 tadir.
12 Uning yonida Shimo‘n qabilasi chodirlarini o‘rnashtirsin. Shimo‘n
qabilasining yo‘lboshchisi Zurishaday o‘g‘li Shalumiyoldir. 13 Uning sanoqqa
kirgan sipohi 59.300 tadir.
14 Keyin Gad qabilasi chodirlarini joylashtirsin. Gad qabilasining yo‘lboshchisi
Duvel* o‘g‘li Eliasafdir. 15 Uning sanoqqa kirgan sipohi 45.650 tadir.
16 Ruben qarorgohidagi hisobga kirgan sipohlarning hammasi 151.450 tadir.
Ikkinchi bo‘lib ular yo‘lga chiqishsin.

Qarorgohlarning markazi

17 Dastlabki ikkita qarorgoh va keyingi ikkita qarorgoh o‘rtasida levilar
Uchrashuv chodiri bilan birga yo‘lga chiqishsin. Qabilalar qay tartibda

qarorgohda joylashgan bo‘lsa, yana o‘sha tartibda yo‘lga chiqishlari lozim. Har biri o‘z o‘rnida, o‘z qarorgohi safida borsin.

G‘arbiy qarorgoh

18 Uchrashuv chodirining g‘arb tomonida chodir tikadigan qabilalar Efrayim
qarorgohida guruh–guruh bo‘lib joylashsinlar. Efrayim qabilasining yo‘lboshchisi
Omihud o‘g‘li Elishamadir. 19 Uning sanoqqa kirgan sipohi 40.500 tadir.
20 Undan keyin Manashe qabilasi chodirlarini o‘rnashtirsin. Manashe
qabilasining yo‘lboshchisi Padozur o‘g‘li Gamaliyoldir. 21 Uning sanoqqa kirgan
sipohlari 32.200 tadir.
22 So‘ngra Benyamin qabilasi chodirlarini joylashtirsin. Benyamin
qabilasining yo‘lboshchisi Gido‘nax o‘g‘li Avidondir. 23 Uning sanoqqa kirgan
sipohlari 35.400 tadir.
24 Efrayim qarorgohidagi sanoqqa kirgan hamma sipohlar 108.100 tadir.
Uchinchi bo‘lib ular yo‘lga chiqishsin.

Shimoliy qarorgoh

25 Uchrashuv chodirining shimol tomonida chodir tikadigan qabilalar Dan
qarorgohida guruh–guruh bo‘lib joylashsinlar. Dan qabilasining yo‘lboshchisi
Omishaday o‘g‘li Oxazardir. 26 Uning sanoqqa kirgan sipohlari 62.700 tadir.
27 Uning yonida Osher qabilasi chodirlarini o‘rnashtirsin. Osher qabilasining
yo‘lboshchisi Oxron o‘g‘li Paxiyoldir. 28 Uning sanoqqa kirgan sipohlari
41.500 tadir.
29 So‘ngra Naftali qabilasi chodirlarini o‘rnashtirsin. Naftali qabilasining
yo‘lboshchisi Enan o‘g‘li Oxirdir. 30 Uning sanoqqa kirgan sipohlari 53.400 tadir.
31 Dan qarorgohidagi sanoqqa kirgan hamma sipohlar 157.600 tadir. Ular
guruh–guruh bo‘lib oxirida yo‘lga chiqishsin.”

32 Shunday qilib, butun Isroil xalqi xonadonlari bo‘yicha sanoqdan o‘tdi.
Qarorgohlarda guruh–guruh bo‘lib joylashgan lashkarning umumiy soni 603.550 ta
chiqdi. 33 Musoga Egamiz amr etganday, Levi qabilasi Isroil xalqiga qo‘shib
hisoblanmadi.
34 Xullas, Musoga Egamiz nima amr etgan bo‘lsa, Isroil xalqi shuni qildi. Ular
qarorgohi bo‘yicha joylashgan, har biri o‘z urug‘i, xonadoni bo‘yicha yo‘lga chiqqan edi.

3–BOB

Ruhoniy Horunning o‘g‘illari

1 Egamiz Sinay tog‘ida Muso bilan so‘zlashganda, Muso va Horunning nasli
quyidagilardan iborat edi: 2 Horunning to‘rtta o‘g‘li bor edi: Nadov, Abihu, Elazar va
Itamar. Nadov to‘ng‘ich o‘g‘il edi. 3 Muso Horunning bu o‘g‘illariga moy surtib, ularni
ruhoniylikka tayinlagan edi. 4 Lekin Nadov bilan Abihu Sinay sahrosida Egamiz amr
etmagan olovni Uning huzuriga olib kelganlari uchun o‘sha yerda nobud bo‘lgan edilar*.
Ikkovi ham befarzand edi. Shuning uchun faqat Elazar bilan Itamar otalari Horun
hayotligida ruhoniy bo‘lib xizmat qilgan edilar.

Levi qabilasi ruhoniylik xizmatiga tayinlanadi

5 Musoga Egamiz shunday amr berdi: 6 “Levi qabilasini ruhoniy Horun huzuriga
boshlab kel. Ular Horunga yordam berishsin. 7 Levilar Uchrashuv chodirida Horunga va
butun Isroil jamoasiga xizmat qilib, Chodirga oid bo‘lgan barcha yumushlarni
bajarishsin. 8 Ular Muqaddas chodirda Isroil xalqi uchun xizmat qilishar ekan,
Chodirdagi hamma ashyolar uchun mas’ul bo‘lishsin. 9 Levilarni Horun va uning o‘g‘illari
ixtiyoriga ber. Isroil xalqining bu qabilasi to‘liq ularning ixtiyorida bo‘lishi shart.
10 Horun va uning o‘g‘illarini ruhoniylik xizmatiga tayinla. Ruhoniylik vazifasini bajargan
har qanday boshqa odamning jazosi o‘limdir.”
11 Musoga Egamiz yana dedi: 12 “Men levilarni Isroil xalqining onadan tug‘ilgan
barcha to‘ng‘ich o‘g‘illari o‘rnida qabul qilganman. Levilar Menikidir. 13 Zotan, hamma
to‘ng‘ich o‘g‘illar Menga tegishli. Men Misrliklarning hamma to‘ng‘ich o‘g‘illarini nobud
qilgan kunim Isroil xalqining barcha to‘ng‘ichlarini — odamidan tortib hayvoniga qadar
O‘zim uchun ajratib olganman*. Ularning hammasi Meniki bo‘lishi shart. Zotan, Men
Egangizman.”

Levi qabilasi ro‘yxatga olinadi

14 Musoga Egamiz Sinay sahrosida yana aytdi: 15 “Levi qabilasini urug‘i va
xonadonlari bo‘yicha sanab chiq. Bir oylik o‘g‘il bolalardan tortib, katta yoshdagi
erkaklargacha sanab chiq.” 16 Egamizning amri bo‘yicha Muso ularni sanab chiqdi.

17 Levining uchta o‘g‘li bo‘lib, ismlari Gershon, Qohot va Marori edi.
18 Gershonning Lubnax va Shimax degan o‘g‘illari bo‘lib, har qaysisidan bittadan
urug‘ kelib chiqdi.
19 Qohotning Imrom, Izxor, Xevron va Uziyol degan o‘g‘illari bo‘lib, ularning har
biridan ham bittadan urug‘ kelib chiqdi.
20 Marorining Maxli va Mushi degan o‘g‘illari bo‘lib, ularning har biridan ham
bittadan urug‘ kelib chiqdi.

Levi urug‘larining ota xonadoni bo‘yicha ro‘yxatga olinganlari ana shular edi.
21 Gershondan Lubnax va Shimax urug‘lari kelib chiqdi. 22 Gershon urug‘iga qarashli
bir oylik o‘g‘il bolalardan tortib, katta yoshdagi erkaklargacha sanalganda, 7500 ta
chiqdi. 23 Gershon urug‘i chodirlarini Muqaddas chodirning orqa tomonida, g‘arbda
o‘rnashtirishlari kerak edi. 24 Gershon urug‘ining oqsoqoli Loyol o‘g‘li Eliasaf edi.
25 Gershon urug‘i Chodirning quyidagi ashyolari uchun mas’ul edi: Chodirning ichki
qavati va qoplamalari, Chodirga kiraverishdagi parda, 26 Chodir bilan qurbongoh atrofini
to‘sib turadigan pardalar, hovliga kiraverishdagi parda va uning arqonlari. Chodirning
bu ashyolari bilan bog‘liq bo‘lgan barcha xizmat Gershon urug‘i zimmasida edi.
27 Qohotdan Imrom, Izxor, Xevron va Uziyol urug‘lari kelib chiqdi. 28 Ularga qarashli
bir oylik o‘g‘il bolalardan tortib, katta yoshdagi erkaklargacha sanalganda, 8600* ta
chiqdi. Qohot urug‘i Muqaddas chodir* uchun mas’ul edi. 29 Qohot urug‘i Muqaddas
chodirning janub tomonida chodir qurishi kerak edi. 30 Qohot urug‘i oqsoqoli Uziyol
o‘g‘li Elizofon edi. 31 Ular Chodirdagi quyidagi ashyolar uchun mas’ul edilar: Sandiq,
xontaxta, chiroqpoya, qurbongohlar, xizmat paytida ishlatiladigan Muqaddas chodir
buyumlari va ichki pardasi. Chodirdagi bu ashyolar bilan bog‘liq bo‘lgan barcha xizmat
Qohot urug‘i zimmasida edi. 32 Levi oqsoqollari ustidan ruhoniy Horun o‘g‘li Elazar

boshchilik qilardi. Muqaddas chodir uchun mas’ul bo‘lganlar Elazarning nazorati ostida edilar.

33 Maroridan Maxli va Mushi urug‘lari kelib chiqdi. 34 Marori urug‘ining bir oylik o‘g‘il
bolalaridan tortib, katta yoshdagi erkaklarigacha sanalganda, 6200 ta chiqdi. 35 Marori
urug‘i oqsoqoli Abuhayil o‘g‘li Zuriyol edi. Ular Muqaddas chodirning shimol tomoniga
chodirlarini o‘rnatishlari kerak edi. 36-37 Ular Chodirdagi quyidagi ashyolar uchun mas’ul
edilar: Chodirning romlari, tambalari, ustunlar va ustun tagliklari, ularga oid barcha
buyumlar, hovlining atrofidagi ustunlar va ustun tagliklari, qoziq va arqonlari, ularga
tegishli hamma buyumlar. Chodirdagi bu ashyolar bilan bog‘liq bo‘lgan barcha xizmat
Marori urug‘i zimmasida edi.

38 Muso, Horun va uning o‘g‘illari o‘z chodirlarini sharq tomonda — Muqaddas
chodirning oldida* o‘rnatishlari kerak edi. Ular Isroil xalqining vakillari sifatida
Muqaddas chodirdagi xizmat uchun mas’ul edilar. Ulardan boshqa birontasi Chodirga
yaqin kelsa, o‘sha odamning jazosi o‘lim edi.

39 Muso va Horun, Egamizning amriga ko‘ra, Levi qabilasining bir oylik o‘g‘il
bolalaridan tortib, katta yoshdagi erkaklarigacha hammani urug‘lari bo‘yicha sanab
chiqqanlarida, ularning umumiy soni 22.000 ta chiqdi.

Levi qabilasi to‘ng‘ich o‘g‘illarning o‘rnini bosadi

40 Egamiz shundan keyin Musoga yana aytdi: “Isroil xalqining bir oylik va undan
yuqori yoshdagi hamma to‘ng‘ich o‘g‘illarini sanab chiq. Ularning ismlarini ro‘yxat qilib
yoz. 41 Isroil xalqining hamma to‘ng‘ich o‘g‘illari o‘rniga Men Levi qabilasini qabul
qilaman. Isroil xalqining chorvasida birinchi tug‘ilgan hayvonlari o‘rniga esa levilarning
chorvasini olaman. Men Egangizman.”

42 Muso Egamizning amrini bajardi. Isroil xalqining hamma to‘ng‘ich o‘g‘illarini
sanab chiqdi. 43 Bir oylik va undan yuqori yoshdagi hamma to‘ng‘ich o‘g‘il birma–bir
sanalganda, 22.273 ta chiqdi.

44 Musoga Egamiz aytdi: 45 “Isroil xalqining hamma to‘ng‘ich o‘g‘illari o‘rniga levilarni
Menga bag‘ishla, Isroil xalqining chorvasi o‘rniga esa levilarning chorvasini Menga
bag‘ishla. Levilar Meniki bo‘ladi. Men Egangizman. 46 Isroilning to‘ng‘ich o‘g‘illari
levilardan 273 ta ortiq. Isroil xalqi ana shu ortiqchasi evaziga tovon to‘lashi kerak. 47 Har
bir ortiqcha odam evaziga besh bo‘lakdan kumush ol. Har bir kumush bo‘lakning
og‘irligi ikki yarim misqol bo‘lsin*. 48 O‘sha kumushni Horun va uning o‘g‘illariga ber.”

49-50 Muso ortiq chiqqan Isroil to‘ng‘ich o‘g‘illaridan 1365 ta kumush bo‘lakni yig‘ib
oldi*. 51 Muso Egamizning amriga ko‘ra, yig‘ib olgan tovon pulini Horun va uning
o‘g‘illariga berdi.

4–BOB

Levi qabilasidan bo‘lgan Qohot urug‘ining burchlari

1 Muso bilan Horunga Egamiz yana dedi: 2 “Endi Levi qabilasidan bo‘lgan Qohot
avlodini urug‘i va xonadoni bo‘yicha sanab chiq. 3 Uchrashuv chodirida xizmat qilishga
yaroqli, o‘ttiz yoshdan ellik yoshgacha bo‘lganlarni sana. 4 Qohot urug‘ining xizmati
Uchrashuv chodirining eng muqaddas ashyolari bilan bog‘liq bo‘ladi.

5 Yo‘lga chiqqaningizda, Horun va uning o‘g‘illari Chodirga kirib, Ahd sandig‘ini to‘sib
turadigan ichki pardani yechishsin. O‘sha parda bilan Sandiqni* yopishsin. 6 So‘ng uning

ustidan yumshoq teridan* qilingan yopinchiq tashlashsin. Yopinchiq ustidan esa sidirg‘a ko‘k choyshab tashlashsin. So‘ng xodalarni joy–joyiga o‘rnatishsin. 7 Keyin muqaddas nonlar* qo‘yiladigan xontaxtaga ko‘k choyshab to‘shashsin. Xontaxtaga lagan, piyola, sharob nazr qilish uchun kosa va ko‘zalar qo‘yishsin. Xontaxta ustida muqaddas nonlar doimo tursin. 8 Bu narsalarning ustidan qirmizi choyshab tashlashsin. Keyin yumshoq teridan qilingan yopinchiq bilan yopib, xodalarni joy–joyiga o‘rnatishsin. 9 So‘ng ko‘k choyshab bilan chiroqpoyani, uning moychiroqlarini, qisqichlarini, patnislarini va zaytun moyi solingan hamma idishlarini yopib qo‘yishsin. 10 So‘ng bularning ustidan yumshoq teridan qilingan yopinchiq bilan yopib, zambilga solishsin. 11 Oltin qurbongoh ustiga ko‘k choyshab tashlab, uning ustini yumshoq teridan qilingan yopinchiq bilan yopishsin va xodalarni joy–joyiga o‘rnatishsin. 12 Keyin Muqaddas xonada ishlatiladigan buyumlarni olib, ko‘k choyshab ustiga qo‘yishsin. So‘ng ustini yumshoq teridan qilingan yopinchiq bilan yopib, zambilga solishsin. 13 Bronza qurbongohni kuldan tozalab, uni safsar rangdagi choyshab bilan yopishsin. 14 So‘ng qurbongohda ishlatilgan hamma buyumlarni — olovkurak, sanchqi, kurak, tog‘orachalarni qurbongoh ustiga qo‘yishsin. Yumshoq teridan qilingan yopinchiq bilan qurbongohni yopib, xodalarni joy–joyiga o‘rnatishsin. 15 Horun va uning o‘g‘illari Muqaddas chodirdagi jihozlarni va buyumlarni yopib bo‘lganlaridan keyin, yo‘lga chiqish vaqti bo‘lganda, Qohot urug‘i bu ashyolarni ko‘tarib borsin. Lekin ular bu muqaddas ashyolarga qo‘l tekkizmasin, aks holda, ular o‘ladilar. Demak, Qohot urug‘i Uchrashuv chodiridagi ashyolarni ko‘tarib boradi.

16 Ruhoniy Horun o‘g‘li Elazar chiroqpoya uchun zaytun moyi, xushbo‘y tutatqi, kundalik don nazri va muqaddas qiladigan moyga* mas’ul bo‘ladi. Xullas, butun Muqaddas chodir va u yerdagi hamma narsalar, muqaddas jihozlar va buyumlar Elazar nazorati ostida bo‘ladi.”

17 Egamiz Muso bilan Horunga yana dedi: 18 “Levi qabilasi orasidan Qohot urug‘ining qirilib ketishiga yo‘l qo‘ymanglar. 19-20 Qohot urug‘idan bo‘lgan har bir odamga xizmat vaqtida nima qilishini va nimani ko‘tarib borishini Horun va uning o‘g‘illari aytishsin. Muqaddas ashyolarga bir lahza bo‘lsa ham qaragani Qohot urug‘i Chodirga kirmasligi kerak. Shunda Qohot urug‘idagi erkaklar eng muqaddas ashyolarga yaqin kelganlarida, o‘lmay tirik qolishadi.”

Levi qabilasidan bo‘lgan Gershon urug‘ining burchlari

21 So‘ng Musoga Egamiz shunday dedi: 22 “Gershon avlodini ham urug‘i va xonadoni bo‘yicha sanab chiq. 23 Uchrashuv chodirida xizmat qilishga yaroqli, o‘ttiz yoshdan ellik yoshgacha bo‘lganlarini sana. 24 Gershon urug‘ining xizmati va ko‘taradigan yuklari quyidagilardan iborat bo‘ladi:

25 Ular Muqaddas chodirning ichki qavatini, Chodirning qoplamasi va yumshoq teridan qilingan tashqi qoplamani, Chodirga kiraverishdagi pardani, 26 Chodir bilan qurbongoh atrofini to‘sib turadigan pardalarni, hovliga kiraverishdagi pardani va unga tegishli arqonlar va hamma buyumlarni ko‘tarib borishlari lozim.

Bu ashyolar bilan aloqador ishlarning hammasini Gershon urug‘i bajarsin. 27 Horun va uning o‘g‘illari Gershon urug‘ining xizmatini, tashiydigan yuklarini va bajaradigan vazifalarini to‘liq nazorat qilib turishsin. Gershon urug‘i ularning aytganlarini qilib, aytgan yuklarni ko‘tarishsin.

28 Gershon urug‘ining Uchrashuv chodirida qiladigan xizmati mana shulardan

iboratdir. Ular ruhoniy Horun o‘g‘li Itamarning nazorati ostida xizmat qilishadi.

Levi qabilasidan bo‘lgan Marori urug‘ining burchlari

29 Endi Marori avlodini urug‘i va xonadoni bo‘yicha sanab chiq. 30 Uchrashuv
chodirida xizmat qilishga yaroqli o‘ttiz yoshdan ellik yoshgacha bo‘lganlarini sana.
31 Ularning Uchrashuv chodiridagi vazifasi quyidagi ashyolarni ko‘tarib yurishdan iborat
bo‘ladi: Chodirning romlarini, tambalarini, ustunlar va ustun tagliklarini, 32 hovlining
atrofidagi ustunlar va ustun tagliklarini, qoziq va arqonlarini, ularga tegishli hamma
buyumlarni. Qaysi odam qaysi narsani ko‘tarib borishini aniq belgilanglar. 33 Marori
urug‘ining Uchrashuv chodirida qiladigan ishlari mana shulardan iboratdir. Ular
ruhoniy Horun o‘g‘li Itamarning nazorati ostida xizmat qilishadi.”

Levi qabilasi sanab chiqiladi

34 Muso, Horun va jamoaning yo‘lboshchilari Qohot avlodini urug‘i va xonadoni
bo‘yicha sanab chiqishdi. 35 Uchrashuv chodirida xizmat qilishga yaroqli, o‘ttiz yoshdan
ellik yoshgacha bo‘lgan erkaklarning soni 36 2750 ta chiqdi. 37 Qohot urug‘ining
Uchrashuv chodirida xizmat qiladiganlari ana shular edi. Muso orqali Egamiz bergan
amrga ko‘ra, Muso bilan Horun ularni sanadi.
38 Gershon avlodi ham urug‘i va xonadoni bo‘yicha sanab chiqildi. 39 Uchrashuv
chodirida xizmat qilishga yaroqli o‘ttiz yoshdan ellik yoshgacha erkaklarning soni
40 2630 ta chiqdi. 41 Gershon urug‘ining Uchrashuv chodirida xizmat qiladiganlari ana
shular edi. Egamizning amriga ko‘ra, Muso bilan Horun ularni sanadi.
42 Marori avlodi ham urug‘i va xonadoni bo‘yicha sanab chiqildi. 43 Uchrashuv
chodirida xizmat qilishga yaroqli o‘ttiz yoshdan ellik yoshgacha erkaklarning soni
44 3200 ta chiqdi. 45 Marori urug‘i ana shular edi. Muso orqali Egamiz bergan amrga
ko‘ra, Muso bilan Horun ularni sanadi.
46 Shunday qilib, Muso, Horun va Isroil yo‘lboshchilari Levi qabilasini urug‘i va
xonadoni bo‘yicha sanab chiqishdi. 47 Uchrashuv chodirida xizmat qilishga va Chodir
ashyolarini ko‘tarishga yaroqli, o‘ttiz yoshdan ellik yoshgacha bo‘lgan erkaklarning
48 umumiy soni 8580 ta chiqdi. 49 Ular Muso orqali Egamiz bergan amrga ko‘ra, har bir
odamga qiladigan ishlarini va ko‘tarib boradigan buyumlarini taqsimlab berishdi.
Musoga Egamiz amr etganday, hamma odam ro‘yxatga olindi.

5–BOB

Qarorgohni bulg‘aydigan odamlar

1 Musoga Egamiz aytdi: 2 “Isroil xalqiga buyur. Ular teri kasalligiga* chalinganlarni,
jinsiy a’zosidan ajralma chiqqanlarni, murdalarga tegib harom bo‘lganlarni qarorgohdan
chiqarib yuborishsin. 3 Erkagini ham, ayolini ham qarorgohdan tashqariga chiqarib
yuborishsin. Ularning dastidan qarorgoh harom bo‘lmasin. Axir, Men xalqim orasida
yashayman.”
4 Isroil xalqi Egamizning Musoga bergan amrini ado etib, o‘shanaqa odamlarni
qarorgohdan chiqarib yubordi.

Tovon to‘lash haqida qonun

5-6 Muso orqali Isroil xalqiga Egamiz quyidagi qonunlarni berdi: Egamizga xiyonat
qilgan, birodariga firib bergan har qanday erkak yoki ayol aybdor hisoblansin. 7 Bunday

odam qilgan gunohini tan olsin. Jabr chekkan tomonga keltirgan zarari uchun tovon to‘lasin, buning ustiga, tovonning beshdan bir qismini ham qo‘shib bersin. 8 Bordi–yu, jabr chekkan odam vafot etgan bo‘lsa va uning yaqin qarindoshi bo‘lmasa, zararni qoplash uchun to‘lanadigan tovon Egamizga bag‘ishlanib, ruhoniyga berilsin. Aybdor tomon tovon bilan birga bir qo‘chqorni olib kelsin. Ruhoniy qo‘chqorni qurbonlik qilib, aybdor tomonni gunohdan poklasin.

9 Isroil xalqi Egamizga atab, ruhoniyga olib kelgan har qanday ehson ruhoniyniki hisoblansin. 10 Ruhoniy qabul qilib olgan hamma ehsonlar ruhoniyning o‘ziga tegishli bo‘lsin.

Rashk qilgan erlar masalasi

11-12 Muso orqali Isroil xalqiga Egamiz quyidagi qonunlarni berdi: agar birontasining xotini yomon yo‘lga kirib, eriga xiyonat qilsa, 13 begona erkak bilan yotib o‘zini bulg‘asa–yu, uni hech kim tutib olmasa, bunga biror guvoh bo‘lmagani uchun erining bundan xabari bo‘lmasa, 14 keyinchalik eri xotinidan shubhalana boshlasa, xotini o‘zini bulg‘amagan taqdirda ham, eri undan shubhalanib, rashk qilsa, 15 er xotinini ruhoniy huzuriga yetaklab borsin. Xotini uchun to‘rt kosa* arpa unini nazr qilib olib borsin. Arpa uniga zaytun moyi yoki xushbo‘y tutatqi qo‘shilmasin. Bu nazr ayol aybdor yoki aybdor emasligini bilish uchun keltirilayotgan rashk nazridir.

16 Ruhoniy ayolni yetaklab, Egamiz huzuriga olib kirsin. 17 So‘ng muqaddas suvni sopol idishga quysin–da, Muqaddas chodirning ichidagi yerdan tuproq olib, suvga qo‘shsin. 18 Ayolni ruhoniy Egamiz huzuriga olib kirgandan so‘ng, ayolning sochini yoysin. Uning qo‘liga rashk uchun keltiriladigan don nazrini tutqizib qo‘ysin. Ruhoniyning o‘zi esa qo‘lida la’nat keltiradigan achchiq suvni ushlab tursin. 19 Ruhoniy ayolga qasam ichtirib, unga shunday so‘zlarni aytsin: “Agar sen begona erkak bilan yotmagan bo‘lsang, bulg‘anmagan, eringga xiyonat qilmagan bo‘lsang, mana shu la’nat keltiradigan achchiq suv senga hech qanday zarar yetkazmasin. 20 Agar eringga xiyonat qilib, bulg‘angan bo‘lsang, eringdan boshqa odam bilan yotgan bo‘lsang, 21 odamlar kimnidir la’natlaganda, Egam sening nomingni la’natga qo‘shib aytadigan qilsin. Egam seni bola tug‘a olmaydigan qilib qo‘ysin*. 22 O‘sha la’nat keltiradigan suv ichingga kirganda, seni tug‘a olmaydigan qilib qo‘ysin.”

Shunda ayol: “Omin, omin”, deb aytsin.

23 So‘ng ruhoniy la’nat so‘zlarini qog‘ozga yozib, uni achchiq suvda yuvsin. 24 Toki ayol o‘sha suvni ichganda, la’nat uning tanasiga kirib azob bersin. 25 Ruhoniy ayolning qo‘lidan rashk uchun keltirilgan don nazrini olib, bu nazrni Egamizga bag‘ishlaganini ko‘rsatish uchun yuqoriga ko‘tarsin, so‘ng qurbongohga olib borsin. 26 Don nazrining bir hovuchini qurbongoh ustida kuydirsin. U bunday qilganda hamma un Xudoga tegishli ekanini bildiradi. Keyin ayolga achchiq suvdan ichirsin. 27 Agar ayol eriga xiyonat qilib bulg‘angan bo‘lsa, la’nat keltiruvchi achchiq suv uning ichiga kirgach, qattiq azob beradi. Ayol bola tug‘a olmaydigan bo‘lib qoladi. O‘sha ayol o‘z xalqi orasida la’nati bo‘ladi. 28 Agar ayol bulg‘anmagan, pok bo‘lsa, hech qanday zarar ko‘rmaydi, bundan keyin ham farzand ko‘rishga qodir bo‘ladi. 29 Rashk haqidagi qonun ana shulardan iboratdir.

Xullas, xotin eriga vafo qilmay, yomon yo‘lga kirib bulg‘anganda 30 yoki eri xotinini rashk qilib, undan shubhalana boshlaganda, er xotinini Egamizning huzuriga boshlab kelsin. Ruhoniy esa yuqoridagi qonunga binoan ish tutsin. 31 O‘shanda er gunohdan

forig‘ bo‘ladi, ayol esa qilgan gunohi uchun jazosini tortadi.

6–BOB

O‘zini Egamizga nazr qilganlar uchun qoida

1-2 Muso orqali Isroil xalqiga Egamiz quyidagi qonunlarni berdi: agar erkak yoki ayol
ont ichib, o‘zini ma’lum bir muddatga Egamizga nazr sifatida bag‘ishlashga* qaror qilgan
bo‘lsa, 3 u sharob va o‘tkir ichimliklardan o‘zini tiysin. Uzum sirkasini ham, boshqa o‘tkir
ichimliklarni ham iste’mol qilmasin. Uzumdan tayyorlangan biror ichimlikni zinhor
ichmasin. Mayizni va uzumni hech og‘ziga olmasin. 4 U o‘zini nazr qilgan davr
mobaynida uzumdan tayyorlangan biror narsani iste’mol qilmasin, hatto uzumning doni
va po‘stlog‘ini ham og‘ziga olmasin. 5 O‘zi ont ichib, belgilagan davr mobaynida sochiga
ham, soqoliga ham ustara tekkizmasin. U Egamizga bag‘ishlanganligi uchun nazr
qilingan kunlari tugagunga qadar sochlarini o‘stirib yursin. 6-7 Soch o‘sha odamning
Xudoga bag‘ishlanganligi belgisidir. Shuning uchun o‘sha odam Egamizga nazr qilingan
kunlari davomida murdaga yaqinlashmasin. Otasi, onasi, aka–ukasi yoki opa–
singillaridan birortasi vafot etib qolganda ham, u murda yoniga borib o‘zini bulg‘amasin.
8 Nazr qilingan kunlari davomida u Egamizga bag‘ishlangandir. 9 Bordi–yu, uning oldida
kimdir to‘satdan vafot etib qolsa, nazr qilingan odamning boshi harom bo‘lgan
hisoblanadi. Shuning uchun nazr qilingan odam yetti kundan keyin sochini oldirsin.
Shunda u yana pok bo‘ladi. 10 Sakkizinchi kuni esa Uchrashuv chodiri kiraverishiga
ikkita kaptar yoki ikkita musichani olib kelib ruhoniyga bersin. 11 Ruhoniy bu
qushlardan bittasini gunoh qurbonligi qiladi, ikkinchisini esa kuydiriladigan qurbonlik
qiladi. Shunday qilib, murda tufayli harom bo‘lgan o‘sha odamni gunohidan poklaydi.
Nazr qilingan odam o‘sha kuniyoq o‘zini qaytadan Egamizga bag‘ishlashi kerak.
12 U bulg‘anganligi uchun oldingi kunlar hisobga kirmaydi. U Egamizga bag‘ishlangan
nazr kunlarini boshqatdan boshlashi lozim. Buning uchun u bir yoshli qo‘chqor qo‘zini
ayb qurbonligi* qilsin.
13 Nazr qilinganlar uchun qonun quyidagichadir: nazr qilingan odam Egamizga
bag‘ishlagan kunlari tugaganda, Uchrashuv chodiri kiraverishiga kelsin. 14 U Egamizga
atab quyidagi qurbonligu nazrlarni keltirsin: kuydiriladigan qurbonlik uchun bir yoshli
nuqsonsiz qo‘chqor qo‘zini, gunoh qurbonligi uchun bir yoshli nuqsonsiz sovliq qo‘zini,
tinchlik qurbonligi uchun nuqsonsiz qo‘chqorni, 15 ularga qo‘shib qilinadigan don bilan
sharob nazrini, bir savat xamirturushsiz nonni — zaytun moyi aralashtirilgan sifatli
undan tayyorlangan nonlar va zaytun moyi surtilgan chalpaklarni. 16 Ruhoniy bularning
hammasini Egamizga taqdim qilib, gunoh qurbonligi va kuydiriladigan qurbonlik qilsin.
17 So‘ng qo‘chqorni don va sharob nazri bilan birga Egamizga tinchlik qurbonligi qilsin.
Shuningdek, savatdagi xamirturushsiz nonni ham keltirsin. 18 Nazr qilgan odam
Uchrashuv chodiriga kiraverishda nazr qilingan sochini oldirsin. Keyin sochlarini
yig‘ishtirib olib, tinchlik qurbonligi kuydirilayotgan olovga tashlasin. 19 U sochini oldirib
bo‘lgandan so‘ng, ruhoniy qo‘chqorning pishirilgan yelkasini, savatdan bir dona
xamirturushsiz nonni, bitta chalpakni olib, nazr qilingan odamning qo‘liga tutqizsin.
20 Keyin ruhoniy o‘sha narsalarni Egamizga bag‘ishlaganini ko‘rsatib, yuqoriga ko‘tarsin.
Bu narsalar ruhoniyning muqaddas ulushi bo‘ladi. Bular — ruhoniy yuqoriga ko‘tarishi
uchun beriladigan qo‘chqor to‘shi va nazr qilingan qo‘chqor sonidan tashqari beriladi.

Shundan so‘ng nazr qilingan odam sharob ichishi mumkin. 21 Nazr qilinganlar uchun qonun shundan iboratdir. Agar nazr qilingan odam Egamizga bulardan tashqari yana biron narsani va’da qilgan bo‘lsa, bergan va’dasi ustidan chiqsin.

Ruhoniylarning duosi

22 Egamiz Musoga dedi:
23 — Horun va uning o‘g‘illari Isroil xalqini duo qilganlarida, shunday deb aytishlari kerak:

24 “Egam senga baraka bersin,
Seni O‘z panohida asrasin!
25 Egam senga ochiq yuz bilan boqsin,
Senga iltifot qilsin.
26 Egam senga nazarini solsin,
Senga tinchlik ato etsin!”

27 Horun va uning o‘g‘illari Isroil xalqini Mening nomim bilan duo qilishsin*. Shunda Men Isroil xalqiga baraka beraman.

7–BOB

Yo‘lboshchilarning nazrlari

1 Muso Muqaddas chodirni o‘rnatib bo‘lgan kuni* Chodirga moy surtib, uni muqaddas qildi. So‘ng Chodirning barcha ashyolariga, qurbongohga va uning barcha buyumlariga moy surtib chiqib, muqaddas qildi.
2 Shundan keyin xalqni ro‘yxatga olish uchun mas’ul bo‘lgan yo‘lboshchilar* — Isroil qabilalarining urug‘boshilari o‘z nazrlarini keltirishdi. 3 Ularning Egamizga keltirgan nazrlari oltita soyabonli arava va o‘n ikkita ho‘kizdan iborat edi. Har bir yo‘lboshchi bittadan ho‘kiz va har ikkita yo‘lboshchi bittadan arava olib kelgan edi. Yo‘lboshchilar bu nazrlarini Egamizga Muqaddas chodir oldida taqdim qilishdi. 4 Shunda Egamiz Musoga aytdi: 5 “Ular olib kelgan narsalarni qabul qilib ol. Bu narsalardan Uchrashuv chodirida xizmat qilishda foydalaninglar. Levilar nima ish qilishlariga qarab, bu narsalarni ularga taqsimlab ber.”
6 Shunday qilib, Muso aravalarni va ho‘kizlarni levilarga taqsimlab berdi. 7 Gershon urug‘ining qiladigan xizmati evaziga ikkita arava va to‘rtta ho‘kizni berdi. 8 Marori urug‘ining qiladigan xizmati evaziga esa to‘rtta arava va sakkizta ho‘kizni berdi. Marori va Gershon urug‘lari ruhoniy Horunning o‘g‘li Itamar nazorati ostida Chodirda xizmat qilishardi. 9 Qohot urug‘iga esa Muso hech narsa bermadi, chunki ular Chodirning muqaddas ashyolari uchun mas’ul edilar va bu ashyolarni yelkada ko‘tarib borishlari lozim edi.
10 Muso qurbongohga moy surtib, uni muqaddas qilgandan keyin Isroil yo‘lboshchilari qurbongohning bag‘ishlanishiga ham o‘z nazrlarini olib kelishdi. Ular nazrlarini qurbongoh oldiga qo‘yishdi. 11 Egamiz Musoga shunday degan edi: “Yo‘lboshchilar qurbongohni bag‘ishlash marosimiga olib kelgan bu nazrlarni har kuni bittadan taqdim qilishsin.”

12 Birinchi kuni Yahudo qabilasidan Ominadavning o‘g‘li Naxsho‘n nazrlarini taqdim
qildi.

13 U quyidagi nazrlarni berdi: og‘irligi 330 misqol bo‘lgan bitta kumush lagan,
og‘irligi 180 misqol bo‘lgan bitta kumush tog‘oracha*. Ikkalasi ham don nazri
uchun sifatli un bilan to‘ldirilib, unga zaytun moyi aralashtirilgan edi. 14 Bulardan
tashqari, Naxsho‘n tutatqi to‘ldirilgan, og‘irligi 25 misqol* keladigan bitta oltin
piyolani ham berdi. 15 U bitta buqani, bitta qo‘chqorni, bitta bir yoshli qo‘chqor
qo‘zini kuydiriladigan qurbonlik qildi, 16 bitta takani gunoh qurbonligi* qildi,
17 ikkita ho‘kizni, beshta qo‘chqorni, beshta takani, beshta bir yoshli qo‘chqor
qo‘zini tinchlik qurbonligi qildi. Ominadav o‘g‘li Naxsho‘nning nazrlari ana
shulardan iborat edi.

18 Ikkinchi kuni Issaxor qabilasining yo‘lboshchisi Zuvor o‘g‘li Natanil nazrlarini taqdim
qildi.

19 U quyidagi nazrlarni berdi: og‘irligi 330 misqol bo‘lgan bitta kumush lagan,
og‘irligi 180 misqol bo‘lgan bitta kumush tog‘oracha. Ikkalasi ham don nazri
uchun sifatli un bilan to‘ldirilib, unga zaytun moyi aralashtirilgan edi. 20 Bulardan
tashqari, Natanil tutatqi to‘ldirilgan, og‘irligi 25 misqol keladigan bitta oltin
piyolani ham berdi. 21 U bitta buqani, bitta qo‘chqorni, bitta bir yoshli qo‘chqor
qo‘zini kuydiriladigan qurbonlik qildi, 22 bitta takani gunoh qurbonligi qildi,
23 ikkita ho‘kizni, beshta qo‘chqorni, beshta takani, beshta bir yoshli qo‘chqor
qo‘zini tinchlik qurbonligi qildi. Zuvor o‘g‘li Natanilning nazrlari ana shulardan
iborat edi.

24 Uchinchi kuni Zabulun qabilasining yo‘lboshchisi Xalon o‘g‘li Eliyob nazrlarini taqdim
qildi.

25 U quyidagi nazrlarni berdi: og‘irligi 330 misqol bo‘lgan bitta kumush lagan,
og‘irligi 180 misqol bo‘lgan bitta kumush tog‘oracha. Ikkalasi ham don nazri
uchun sifatli un bilan to‘ldirilib, unga zaytun moyi aralashtirilgan edi. 26 Bulardan
tashqari, Eliyob tutatqi to‘ldirilgan, og‘irligi 25 misqol keladigan bitta oltin
piyolani ham berdi. 27 U bitta buqani, bitta qo‘chqorni, bitta bir yoshli qo‘chqor
qo‘zini kuydiriladigan qurbonlik qildi, 28 bitta takani gunoh qurbonligi qildi,
29 ikkita ho‘kizni, beshta qo‘chqorni, beshta takani, beshta bir yoshli qo‘chqor
qo‘zini tinchlik qurbonligi qildi. Xalon o‘g‘li Eliyobning nazrlari ana shulardan
iborat edi.

30 To‘rtinchi kuni Ruben qabilasining yo‘lboshchisi Shaduvor o‘g‘li Elizur nazrlarini
taqdim qildi.

31 U quyidagi nazrlarni berdi: og‘irligi 330 misqol bo‘lgan bitta kumush lagan,
og‘irligi 180 misqol bo‘lgan bitta kumush tog‘oracha. Ikkalasi ham don nazri
uchun sifatli un bilan to‘ldirilib, unga zaytun moyi aralashtirilgan edi. 32 Bulardan
tashqari, Elizur tutatqi to‘ldirilgan, og‘irligi 25 misqol keladigan bitta oltin

piyolani ham berdi. 33 U bitta buqani, bitta qo‘chqorni, bitta bir yoshli qo‘chqor
qo‘zini kuydiriladigan qurbonlik qildi, 34 bitta takani gunoh qurbonligi qildi,
35 ikkita ho‘kizni, beshta qo‘chqorni, beshta takani, beshta bir yoshli qo‘chqor
qo‘zini tinchlik qurbonligi qildi. Shaduvor o‘g‘li Elizurning nazrlari ana shulardan
iborat edi.

36 Beshinchi kuni Shimo‘n qabilasining yo‘lboshchisi Zurishaday o‘g‘li Shalumiyol
nazrlarini taqdim qildi.

37 U quyidagi nazrlarni berdi: og‘irligi 330 misqol bo‘lgan bitta kumush lagan,
og‘irligi 180 misqol bo‘lgan bitta kumush tog‘oracha. Ikkalasi ham don nazri
uchun sifatli un bilan to‘ldirilib, unga zaytun moyi aralashtirilgan edi. 38 Bulardan
tashqari, Shalumiyol tutatqi to‘ldirilgan, og‘irligi 25 misqol keladigan bitta oltin
piyolani ham berdi. 39 U bitta buqani, bitta qo‘chqorni, bitta bir yoshli qo‘chqor
qo‘zini kuydiriladigan qurbonlik qildi, 40 bitta takani gunoh qurbonligi qildi,
41 ikkita ho‘kizni, beshta qo‘chqorni, beshta takani, beshta bir yoshli qo‘chqor
qo‘zini tinchlik qurbonligi qildi. Zurishaday o‘g‘li Shalumiyolning nazrlari ana
shulardan iborat edi.

42 Oltinchi kuni Gad qabilasining yo‘lboshchisi Duvel o‘g‘li Eliasaf nazrlarini taqdim qildi.

43 U quyidagi nazrlarni berdi: og‘irligi 330 misqol bo‘lgan bitta kumush lagan,
og‘irligi 180 misqol bo‘lgan bitta kumush tog‘oracha. Ikkalasi ham don nazri
uchun sifatli un bilan to‘ldirilib, unga zaytun moyi aralashtirilgan edi. 44 Bulardan
tashqari, Eliasaf tutatqi to‘ldirilgan, og‘irligi 25 misqol keladigan bitta oltin
piyolani ham berdi. 45 U bitta buqani, bitta qo‘chqorni, bitta bir yoshli qo‘chqor
qo‘zini kuydiriladigan qurbonlik qildi, 46 bitta takani gunoh qurbonligi qildi,
47 ikkita ho‘kizni, beshta qo‘chqorni, beshta takani, beshta bir yoshli qo‘chqor
qo‘zini tinchlik qurbonligi qildi. Duvel o‘g‘li Eliasafning nazrlari ana shulardan
iborat edi.

48 Yettinchi kuni Efrayim qabilasining yo‘lboshchisi Omihud o‘g‘li Elishama nazrlarini
taqdim qildi.

49 U quyidagi nazrlarni berdi: og‘irligi 330 misqol bo‘lgan bitta kumush lagan,
og‘irligi 180 misqol bo‘lgan bitta kumush tog‘oracha. Ikkalasi ham don nazri
uchun sifatli un bilan to‘ldirilib, unga zaytun moyi aralashtirilgan edi. 50 Bulardan
tashqari, Elishama tutatqi to‘ldirilgan, og‘irligi 25 misqol keladigan bitta oltin
piyolani ham berdi. 51 U bitta buqani, bitta qo‘chqorni, bitta bir yoshli qo‘chqor
qo‘zini kuydiriladigan qurbonlik qildi, 52 bitta takani gunoh qurbonligi qildi,
53 ikkita ho‘kizni, beshta qo‘chqorni, beshta takani, beshta bir yoshli qo‘chqor
qo‘zini tinchlik qurbonligi qildi. Omihud o‘g‘li Elishamaning nazrlari ana
shulardan iborat edi.

54 Sakkizinchi kuni Manashe qabilasining yo‘lboshchisi Padozur o‘g‘li Gamaliyol
nazrlarini taqdim qildi.

55 U quyidagi nazrlarni berdi: ogʻirligi 330 misqol boʻlgan bitta kumush lagan,
ogʻirligi 180 misqol boʻlgan bitta kumush togʻoracha. Ikkalasi ham don nazri
uchun sifatli un bilan toʻldirilib, unga zaytun moyi aralashtirilgan edi. 56 Bulardan
tashqari, Gamaliyol tutatqi toʻldirilgan, ogʻirligi 25 misqol keladigan bitta oltin
piyolani ham berdi. 57 U bitta buqani, bitta qoʻchqorni, bitta bir yoshli qoʻchqor
qoʻzini kuydiriladigan qurbonlik qildi, 58 bitta takani gunoh qurbonligi qildi,
59 ikkita hoʻkizni, beshta qoʻchqorni, beshta takani, beshta bir yoshli qoʻchqor
qoʻzini tinchlik qurbonligi qildi. Padozur oʻgʻli Gamaliyolning nazrlari ana
shulardan iborat edi.

60 Toʻqqizinchi kuni Benyamin qabilasining yoʻlboshchisi Gidoʻnax oʻgʻli Avidon
nazrlarini taqdim qildi.

61 U quyidagi nazrlarni berdi: ogʻirligi 330 misqol boʻlgan bitta kumush lagan,
ogʻirligi 180 misqol boʻlgan bitta kumush togʻoracha. Ikkalasi ham don nazri
uchun sifatli un bilan toʻldirilib, unga zaytun moyi aralashtirilgan edi. 62 Bulardan
tashqari, Avidon tutatqi toʻldirilgan, ogʻirligi 25 misqol keladigan bitta oltin
piyolani ham berdi. 63 U bitta buqani, bitta qoʻchqorni, bitta bir yoshli qoʻchqor
qoʻzini kuydiriladigan qurbonlik qildi, 64 bitta takani gunoh qurbonligi qildi,
65 ikkita hoʻkizni, beshta qoʻchqorni, beshta takani, beshta bir yoshli qoʻchqor
qoʻzini tinchlik qurbonligi qildi. Gidoʻnax oʻgʻli Avidonning nazrlari ana shulardan
iborat edi.

66 Oʻninchi kuni Dan qabilasining yoʻlboshchisi Omishadayning oʻgʻli Oxazar nazrlarini
taqdim qildi.

67 U quyidagi nazrlarni berdi: ogʻirligi 330 misqol boʻlgan bitta kumush lagan,
ogʻirligi 180 misqol boʻlgan bitta kumush togʻoracha. Ikkalasi ham don nazri
uchun sifatli un bilan toʻldirilib, unga zaytun moyi aralashtirilgan edi. 68 Bulardan
tashqari, Oxazar tutatqi toʻldirilgan, ogʻirligi 25 misqol keladigan bitta oltin
piyolani ham berdi. 69 U bitta buqani, bitta qoʻchqorni, bitta bir yoshli qoʻchqor
qoʻzini kuydiriladigan qurbonlik qildi, 70 bitta takani gunoh qurbonligi qildi,
71 ikkita hoʻkizni, beshta qoʻchqorni, beshta takani, beshta bir yoshli qoʻchqor
qoʻzini tinchlik qurbonligi qildi. Omishaday oʻgʻli Oxazarning nazrlari ana
shulardan iborat edi.

72 Oʻn birinchi kuni Osher qabilasining yoʻlboshchisi Oxron oʻgʻli Paxiyol nazrlarini
taqdim qildi.

73 U quyidagi nazrlarni berdi: ogʻirligi 330 misqol boʻlgan bitta kumush lagan,
ogʻirligi 180 misqol boʻlgan bitta kumush togʻoracha. Ikkalasi ham don nazri
uchun sifatli un bilan toʻldirilib, unga zaytun moyi aralashtirilgan edi. 74 Bulardan
tashqari, Paxiyol tutatqi toʻldirilgan, ogʻirligi 25 misqol keladigan bitta oltin
piyolani ham berdi. 75 U bitta buqani, bitta qoʻchqorni, bitta bir yoshli qoʻchqor
qoʻzini kuydiriladigan qurbonlik qildi, 76 bitta takani gunoh qurbonligi qildi,
77 ikkita hoʻkizni, beshta qoʻchqorni, beshta takani, beshta bir yoshli qoʻchqor

qo‘zini tinchlik qurbonligi qildi. Oxron o‘g‘li Paxiyolning nazrlari ana shulardan iborat edi.

78 O‘n ikkinchi kuni Naftali qabilasining yo‘lboshchisi Enan o‘g‘li Oxir nazrlarini taqdim qildi.

79 U quyidagi nazrlarni berdi: og‘irligi 330 misqol bo‘lgan bitta kumush lagan, og‘irligi 180 misqol bo‘lgan bitta kumush tog‘oracha. Ikkalasi ham don nazri uchun sifatli un bilan to‘ldirilib, unga zaytun moyi aralashtirilgan edi. 80 Bulardan tashqari, Oxir tutatqi to‘ldirilgan, og‘irligi 25 misqol keladigan bitta oltin piyolani ham berdi. 81 U bitta buqani, bitta qo‘chqorni, bitta bir yoshli qo‘chqor qo‘zini kuydiriladigan qurbonlik qildi, 82 bitta takani gunoh qurbonligi qildi, 83 ikkita ho‘kizni, beshta qo‘chqorni, beshta takani, beshta bir yoshli qo‘chqor qo‘zini tinchlik qurbonligi qildi. Enan o‘g‘li Oxirning nazrlari ana shulardan iborat edi.

84 Shunday qilib, Muso qurbongohga moy surtib, uni muqaddas qilgandan keyin, Isroil yo‘lboshchilari qurbongohning bag‘ishlanishiga olib kelgan nazrlarning jami quyidagicha bo‘ldi: o‘n ikkita kumush lagan, o‘n ikkita kumush tog‘oracha, o‘n ikkita oltin piyola. 85 Har bir kumush laganning og‘irligi 330 misqol, har bir kumush tog‘oracha 180 misqol edi*. Hammasi bo‘lib taqdim qilingan kumush buyumlarning og‘irligi ikki pudga yaqin edi*. 86 Tutatqi to‘ldirilgan har bir oltin piyolaning og‘irligi 25 misqol* edi. Bu o‘n ikkita oltin buyumning umumiy og‘irligi 300 misqol* chiqdi. 87 O‘n ikkita buqa, o‘n ikkita qo‘chqor, o‘n ikkita bir yoshli qo‘chqor qo‘zi kuydiriladigan qurbonlik qilindi, qurbonlikka qo‘shib qilinadigan don nazri ham keltirildi. O‘n ikkita taka gunoh qurbonligi qilindi. 88 Yigirma to‘rtta ho‘kiz, oltmishta qo‘chqor, oltmishta taka, oltmishta bir yoshli qo‘chqor qo‘zi tinchlik qurbonligi qilindi. Muso qurbongohga moy surtib, uni muqaddas qilgandan keyin, qurbongohning bag‘ishlanishiga ana shu nazrlar taqdim qilingan edi.

89 Muso Egamiz bilan gaplashish uchun Uchrashuv chodiriga kirganda, Egamizning ovozini eshitdi. Ovoz Ahd sandig‘ining* qopqog‘i ustidagi ikki karub* orasidan kelayotgan edi.

8–BOB

Horun moychiroqlarni o‘rnatadi

1 Egamiz yana Musoga dedi: 2 “Horunga ayt, u yettala moychiroqni chiroqpoyaga o‘rnatganda, moychiroqlarning nuri chiroqpoyaning old tomonini yoritadigan qilib o‘rnatsin.”

3 Egamizning Muso orqali bergan bu amrini Horun bajardi. U yettita moychiroqni chiroqpoyaning old tomonini yoritadigan qilib o‘rnatdi. 4 Chiroqpoya, Egamiz Musoga ko‘rsatgan namuna bo‘yicha*, tagligidan tortib, gullarigacha oltindan zarb urib yasalgan edi.

Levilar poklanib Xudoga bag‘ishlanadi

5 Egamiz Musoga yana aytdi: 6 “Isroil xalqi orasidan levilarni ajratib olib, quyidagi yo‘l bilan ularni pokla*: 7 levilarga gunohdan poklaydigan suvni sep. Ular ustara bilan

butun badanlarini qirib tozalashsin, kiyimlarini yuvishsin. Shundan so‘ng ular pok bo‘lishadi. 8 So‘ngra ular buqani va buqaga qo‘shib nazr qilinadigan zaytun moyi aralashtirilgan sifatli unni olib kelishsin. Bundan tashqari, boshqa bir buqani gunoh qurbonligi qilish uchun olib kelishsin. 9 So‘ng butun jamoani to‘pla, levilarni Uchrashuv chodiri oldiga olib kel. 10 Levilarni Men, Egangizning huzuriga olib kelganingda, Isroil xalqi levilarga qo‘llarini qo‘ysin. 11 Horun levilarni Isroil xalqidan maxsus nazr sifatida Men, Egangizga bag‘ishlasin, toki levilar Menga xizmat qilishsin. 12 Levilar qo‘llarini buqalarning boshiga qo‘yishsin. Horun bir buqani gunoh qurbonligi, ikkinchi buqani esa kuydiriladigan qurbonlik qilib, levilarni gunohlardan poklasin. 13 Keyin levilarni Horun va uning o‘g‘illari ro‘parasiga turg‘izib qo‘y. Levilarni maxsus nazr sifatida Men, Egangizga bag‘ishla.

14 Shunday qilib, levilarni Isroil xalqi orasidan ajratib ol. Levilar Meniki bo‘ladi.
15 Levilarni poklab, maxsus nazr sifatida Menga bag‘ishlaganingdan so‘ng, ular xizmat qilish uchun Uchrashuv chodiriga kira oladilar. 16 Men levilarni Isroil xalqi orasidan O‘zim uchun olganman. Ularni O‘zim uchun Isroil ayollaridan tug‘ilgan barcha to‘ng‘ich o‘g‘illari o‘rniga olganman. 17 Chunki Isroil xalqining hamma to‘ng‘ichlari — odamning to‘ng‘ich o‘g‘lidan tortib, mollarning birinchi erkak bolasigacha Menikidir. Misrda hamma to‘ng‘ichlarni nobud qilgan kunim Men Isroil xalqining to‘ng‘ich o‘g‘illarini O‘zim uchun ajratib olganman. 18 Isroil xalqi orasidagi hamma to‘ng‘ich o‘g‘illar o‘rniga esa levilarni olganman. 19 Levilarni Isroil xalqi orasidan ajratib olib, Horun va uning o‘g‘illari ixtiyoriga topshirganman. Levilar Isroil xalqi nomidan Uchrashuv chodirida xizmat qiladilar. Isroil xalqi Chodirga yaqin kelib qolganda, yuz beradigan kulfatdan levilar ularni himoya qiladi*.”

20 Muso, Horun va butun Isroil jamoasi levilarni Egamizga bag‘ishladilar. Xullas, Egamizning levilar haqida Musoga bergan amrlarini bajardilar. 21 Levilar poklanishdi, kiyimlarini yuvishdi. Horun ularni maxsus nazr sifatida Egamizga bag‘ishlab, poklash marosimini o‘tkazdi. 22 Shundan keyin levilar Horun va uning o‘g‘illari nazorati ostida Uchrashuv chodirida xizmat ado etish uchun u yerga kirdilar. Shunday qilib, Egamiz levilar haqida Musoga qanday amr etgan bo‘lsa, Isroil xalqi uning amrlarini ado etdi.

23 Egamiz yana Musoga aytdi: 24 “Levilar quyidagi qoidaga rioya qilishsin: yigirma besh va undan yuqori yoshdagi levilar Uchrashuv chodiridagi xizmatini boshlashsin.
25 Ellik yoshda esa xizmatidan bo‘shab, boshqa xizmat qilishmasin. 26 Xizmatidan bo‘shagan levilar Uchrashuv chodirida xizmat qilayotgan birodarlariga yordam berishlari mumkin. Lekin biror ish uchun mas’uliyatni o‘z bo‘yinlariga olishmasin. Levilarning majburiyatlarini shu tariqa ko‘rsatib ber.”

9–BOB

Fisih ziyofati

1 Isroil xalqi Misrdan chiqqandan keyin, ikkinchi yilning birinchi oyida* Egamiz Sinay sahrosida Musoga dedi: 2 “Isroil xalqiga ayt, ular Fisih ziyofatini belgilangan vaqtda,
3 shu oyning o‘n to‘rtinchi kuni kechqurun nishonlashsin. Bayramning hamma qonun–qoidalariga rioya qilishsin.”

4 Shunday qilib, Muso Isroil xalqiga: “Fisih ziyofatini nishonlanglar”, deb buyruq berdi. 5 Isroil xalqi birinchi oyning o‘n to‘rtinchi kuni kechqurun Sinay sahrosida Fisih

ziyofatini nishonladi. Ular hamma narsani Egamizning Musoga bergan amri bo‘yicha qilishdi. 6 Biroq odam murdasiga tegib harom bo‘lganlar o‘sha kuni Fisih ziyofatida ishtirok etisha olmadi. Ular o‘sha kuniyoq Muso bilan Horunning huzuriga kelib shunday deyishdi:

7 — Biz murdaga tekkanimiz uchun harommiz. Lekin nima uchun biz chetda qolishimiz kerak? Biz ham, Isroil xalqi qatori, belgilangan vaqtda Egamizga qurbonlik keltirmoqchimiz!

8 Muso ularga:

— Kutib turinglar–chi, Egamiz sizlar to‘g‘ringizda qanday amr berar ekan, eshitay, — dedi.

9 Musoga Egamiz shunday dedi:

10 — Isroil xalqiga Mening shu gapimni yetkaz: “Birortangiz yoki avlodlaringizdan kimdir murdaga tegib harom bo‘lsa yoki safarga ketgan bo‘lsa, Egamizga bag‘ishlangan Fisih ziyofatini nishonlayversin. 11 Bunday odamlar bayramni ikkinchi oyning* o‘n to‘rtinchi kuni kechqurun nishonlab, qurbonlik* go‘shtini xamirturushsiz non va taxir o‘tlar bilan birga yeyishsin. 12 Ertalabgacha taomdan qoldirishmasin. Qurbonlikning birorta suyagini sindirishmasin. Fisih ziyofatini hamma qonunlarga muvofiq nishonlashsin. 13 Lekin bironta odam pok bo‘lib, safarda bo‘lmasa va shunga qaramay, Fisih ziyofatini nishonlashdan bosh tortsa, belgilangan vaqtda Egamizga bag‘ishlab qurbonlik qilmagani uchun Isroil xalqi orasidan yo‘q qilinsin. Shunday qilib, u o‘z gunohi uchun jazosini tortadi. 14 Orangizda yashayotgan musofir Egamizga bag‘ishlangan Fisih ziyofatini nishonlamoqchi bo‘lganda, o‘sha qonun–qoidalarga rioya qilishi shart. Hammangiz uchun — sizlar va musofirlar uchun qonun bitta bo‘lsin.”

Alangali bulut

15 Muqaddas chodir o‘rnatilgan kuni* Chodirni* bulut qoplab oldi. Oqshomdan ertalabgacha Muqaddas chodir tepasidagi o‘sha bulutning ko‘rinishi alangaga o‘xshar edi. 16 Har doim shu ahvol yuz berardi: Chodirni kunduzi bulut qoplab olar, tunda esa bulut alangaga o‘xshab turardi. 17 Bulut Chodir tepasidan ko‘tarilgach, Isroil xalqi yo‘lga chiqardi. Bulut to‘xtagan joyda esa Isroil xalqi chodir tikardi. 18 Isroil xalqi Egamizning amri bilan yo‘lga chiqar va Egamizning amri bilan chodir tikardi. Bulut Muqaddas chodir tepasida turgan vaqt mobaynida, ular ham joylaridan siljimas edilar. 19 Bulut Chodir tepasida uzoq kunlar turib qolganda ham, Isroil xalqi Egamizning talabiga rioya qilib, yo‘lga chiqmasdi. 20 Ba’zan esa bulut Chodir tepasida ozroq kun turardi. Bunday paytda ham Isroil xalqi Egamizning amriga muvofiq to‘xtardi, Uning amri bilan yo‘lga chiqardi. 21 Ayrim vaqtlarda esa bulut Chodir tepasida bor–yo‘g‘i bir kechagina turib, ertalab ko‘tarilar edi. Shunda Isroil xalqi ham yo‘lga chiqardi. Bulut ko‘tarilgan payti, kechasi bo‘ladimi, kunduzi bo‘ladimi, Isroil xalqi ham yo‘lga chiqardi. 22 Ba’zan bulut ikki kun, bir oy yoki uzoqroq vaqt mobaynida Chodir tepasida turib qolardi. Shunda Isroil xalqi ham qarorgohda qolib, yo‘lga chiqmasdi. Bulut ko‘tarilgandan so‘ng Isroil xalqi yo‘lga chiqardi. 23 Ular Egamizning amri bilan to‘xtab, Uning amri bilan yo‘lga chiqishardi. Muso orqali Egamiz bergan amrlariga muvofiq hamma talablarni bajarishar edi.

10–BOB

Kumush karnaylar

1 Egamiz Musoga aytdi: 2 “Sen ikkita kumush karnay yasattir, karnaylar zarb urib
yasalgan bo‘lsin. Bu karnaylar jamoani yig‘ish hamda yo‘lga chiqish vaqtini e’lon qilish
uchun kerak bo‘ladi. 3 Karnaylarning ikkalasi chalinganda, butun jamoa sening oldingga
— Uchrashuv chodiri kiraverishi oldiga to‘plansin. 4 Karnayning bittasi chalinganda esa,
Isroil qabilalarining yo‘lboshchilari sening oldingga yig‘ilib kelishsin. 5 Karnay qisqa
chalinganda, sharqdagi qarorgohda turgan qabilalar yo‘lga chiqishsin. 6 Ikkinchi marta
qisqa chalinganda esa, janubdagi qarorgohda turgan qabilalar yo‘lga chiqishsin.
Karnayning qisqa sadosi yo‘lga chiqish kerakligini bildiradi*. 7 Jamoani yig‘ish lozim
bo‘lganda esa, karnaylar boshqacha sado chiqarib chalinsin. 8 Karnayni Horunning
o‘g‘illari, ruhoniylar chalishlari lozim. Bu amr sizlar uchun va sizlarning avlodlaringiz
uchun doimiy qonun–qoidadir.
9 Yurtingizga bostirib kelgan dushmanga qarshi jangga otlanayotganingizda,
xatardan darak berib karnaylarni chalinglar. Shunda Men, Egangiz Xudo, sizlarga
yordam berib, sizlarni dushmanlaringiz qo‘lidan xalos qilaman. 10 Shuningdek,
xursandchilik kunlaringizda — belgilangan bayramlaringizda va oy boshida
qurbonliklar kuydirganingizda hamda tinchlik qurbonliklarini keltirganingizda
karnaylarni chalinglar. Shunda Men, Egangiz Xudo, sizlarga yordam beraman. Zotan,
Men Egangiz Xudoman.”

Isroil xalqi Sinaydan ketadi

11 Isroil xalqi Misrdan chiqqandan keyin, ikkinchi yilning ikkinchi oyi* yigirmanchi
kunida bulut Muqaddas ahd chodiri* tepasidan ko‘tarildi. 12 Shundan so‘ng Isroil xalqi
Sinay sahrosidan yo‘lga chiqdi*. Nihoyat, bulut Poron cho‘lida* to‘xtadi. 13 Ular birinchi
marta Egamizning Muso orqali bergan amriga ko‘ra, yo‘lga chiqqan edilar. 14 Birinchi
bo‘lib, Ominadav o‘g‘li Naxsho‘n boshchiligida Yahudo qarorgohida turgan qabilalar o‘z
bayrog‘i ostida guruh–guruh bo‘lib yo‘lga chiqishdi. 15 Issaxor qabilasiga Zuvor o‘g‘li
Natanil boshchilik qilar edi. 16 Zabulun qabilasiga Xalon o‘g‘li Eliyob boshchilik qilar edi.
17 Shundan keyin Muqaddas chodir yig‘ishtirib olindi. Gershon va Marori urug‘lari
Chodirni ko‘tarib, yo‘lga chiqishdi. 18 Keyin Shaduvor o‘g‘li Elizur boshchiligida Ruben
qarorgohida turgan qabilalar o‘z bayrog‘i ostida guruh–guruh bo‘lib yo‘lga chiqishdi.
19 Shimo‘n qabilasiga Zurishaday o‘g‘li Shalumiyol boshchilik qilar edi. 20 Gad qabilasiga
Duvel o‘g‘li Eliasaf boshchilik qilar edi. 21 Keyin Chodirning muqaddas ashyolarini
ko‘targan Qohot urug‘i yo‘lga chiqdi. Ular qarorgoh quriladigan joyga yetib
borgunlaricha, Muqaddas chodir o‘rnatib bo‘linishi kerak edi. 22 Keyin Omihud o‘g‘li
Elishama boshchiligida Efrayim qarorgohida turgan qabilalar o‘z bayrog‘i ostida guruh–
guruh bo‘lib yo‘lga chiqishdi. 23 Manashe qabilasiga Padozur o‘g‘li Gamaliyol boshchilik
qilardi. 24 Benyamin qabilasiga Gido‘nax o‘g‘li Avidon boshchilik qilardi.
25 Eng oxirida Omishaday o‘g‘li Oxazar boshchiligida Dan qarorgohidagi qabilalar o‘z
bayrog‘i ostida guruh–guruh bo‘lib yo‘lga chiqishdi. Ular Isroil qarorgohlarining
qorovullar bo‘linmasini tashkil qilishgan edi. 26 Osher qabilasiga Oxron o‘g‘li Paxiyol
boshchilik qilardi. 27 Naftali qabilasiga Enan o‘g‘li Oxir boshchilik qilardi. 28 Isroil xalqi
doim shu tartibda guruh–guruh bo‘lib yo‘lga chiqar edi.

29 Muso o‘zining qaynag‘asi, Midiyonlik Yatro* o‘g‘li Xo‘vovga dedi:
— Egamiz, sizlarga beraman, deb va’da qilgan yurtga biz ketyapmiz, siz ham biz bilan yuring. Egamiz bizga ko‘p yaxshiliklarni va’da qilgan, agar biz bilan borsangiz, biz ham sizga yaxshilik qilamiz.
30 — Bormayman, — dedi Xo‘vov, — men o‘z yurtimga — o‘zimning qarindoshlarim oldiga qaytib ketaman.
31 — Iltimos, bizni tashlab ketmang! — dedi unga Muso. — Sahroning qaysi joyiga chodir tikish kerakligini siz bilasiz. Siz bizning ko‘zimiz bo‘lasiz. 32 Agar biz bilan birga borsangiz*, Egamiz bizga qilgan hamma yaxshiliklarni siz bilan baham ko‘ramiz.
33 Ular Egamizning muqaddas tog‘ini* tark etganlaridan so‘ng, uch kun yo‘l yurishdi. Levilar chodir tikadigan joyini topish uchun Egamizning Ahd sandig‘ini doimo oldinda ko‘tarib borishardi. 34 Ular kunduz kuni yo‘l yurganlarida, Egamizning buluti ularning ustida borar edi. 35 Sandiq yo‘lga chiqqanda, Muso shunday derdi:

“Qo‘zg‘al, ey Egam,
Sening g‘animlaring tumtaraqay bo‘lsin.
Seni ko‘rolmaganlar oldingdan qochib ketsin.”

36 Ahd sandig‘i to‘xtaganda esa Muso shunday derdi:

“Qayt, ey Egam,
Ming–minglab Isroil xalqi orasiga!”

11–BOB

Tavera nomli joy

1 Oradan ko‘p vaqt o‘tmay xalq qiyinchiliklardan ming‘irlab noliy boshladi. Ularning nolishlarini eshitgan Egamiz g‘oyat g‘azablanib, qarorgohga alanga tushirdi. Alanga avj olib, qarorgohning chetlarini kuydirib yubordi. 2 Xalq Musoga faryod qildi. Muso Egamizga iltijo qilgan edi, alanga o‘chdi. 3 Egamizning alangasi qarorgohni yondirgani uchun bu joyga Tavera* deb nom berildi.

Muso yetmishta oqsoqolni tanlaydi

4 Isroil xalqi orasidagi qalang‘i–qasang‘ilarning* nafsiga o‘t tushdi. Isroil xalqi ham ularga qo‘shilishib fig‘on chekib, zorlana boshladi: “Qaniydi go‘sht bo‘lsa! 5 Biz Misrda tekinga baliq, bodring, qovun, piyoz, ko‘k piyoz, sarimsoq yerdik. 6 Endi esa sillamiz qurigan, mannadan* boshqa yeydigan hech narsa yo‘q.”
7 Manna kashnich urug‘iga o‘xshardi, uning rangi daraxt yelimi rangiday edi. 8 Xalq mannani yerdan yig‘ishtirib olar, tegirmonda yanchib yoki havonchada tuyib, so‘ng qozonga solib qaynatardi, non ham yopardi. Uning mazasi zaytun moyi qo‘shib yopilgan nonga o‘xshardi. 9 Tunda qarorgohga shabnam tushganda, shabnam bilan birga manna ham yog‘ilardi.
10 Hamma odamlar oila a’zolari bilan birga o‘z chodirlarining kiraverishida turib faryod qilishayotgan edi. Buni eshitgan Muso qattiq ranjidi. Egamizning g‘azabi ham alanga oldi. 11 Shunda Muso Egamizga dedi:
— Nimaga qulingning boshiga shuncha azoblarni solding? Nima uchun mendan

marhamatingni darig‘ tutding? Nima uchun bu xalqning og‘irligini menga yuklading?
12 Shu xalqning hammasini men qornimda ko‘tarib yurganmidim?! Ularni men
tuqqanmidim?! Nimaga unda Sen menga: “Enaga chaqaloqni ko‘tarib yurganday, sen bu
xalqni Men ota–bobolaringga va’da qilgan yurtga qo‘llaringda ko‘tarib borasan”, deb
aytyapsan? 13 Ular yig‘lab, bizga go‘sht ber, deb aytishyapti! Shuncha xalqqa go‘shtni
qayerdan topib beraman, axir?! 14 Bu xalqning og‘irligini men bir o‘zim ko‘tara
olmayman. Bunga ortiq chiday olmayman. 15 Agar menga munosabating shu bo‘lsa,
hoziroq jonimni olib qo‘ya qol. Bordi–yu, Sendan marhamat topgan bo‘lsam, mening
bunchalik xor bo‘lishimga yo‘l qo‘yma.

16 Shunda Egamiz Musoga dedi:

— Menga Isroil oqsoqollaridan yetmishtasini yig‘ib ber. Ular xalqning orasida
yo‘lboshchi deb tan olingan obro‘li odamlardan bo‘lishsin. Ularni Uchrashuv chodiriga
olib kelib, o‘zingning yoningga turg‘izib qo‘y. 17 Men tushib kelib, u yerda sen bilan
gaplashaman. So‘ng senga bergan Ruhimdan olib, ularga ham beraman. Sen bu xalqning
og‘irligini yolg‘iz o‘zing ko‘tarmasliging uchun, ular yoningga kirib, og‘iringni yengil
qilishadi. 18 Xalqqa esa shu gapni ayt: “Ertangi kunga tayyorlanib poklaninglar*, go‘sht
yeysizlar. Sizlar Egamizning qulog‘i ostida ming‘irlab nolib, qaniydi go‘sht bo‘lsa, biz
Misrda davr surgan ekanmiz–da, deb faryod qildingizlar. Shuning uchun Egamiz sizlarga
go‘sht beradi, sizlar go‘sht yeysizlar. 19 Sizlar go‘shtni bir–ikki kun emas, besh–o‘n kun
ham emas, yigirma kun ham emas, 20 balki bir oy davomida — go‘sht burningizdan
chiqquncha, ko‘nglingizga urguncha yeysizlar. Chunki sizlar, Misrdan chiqishimizning
nima keragi bor edi, deya ming‘irlab nolib, orangizdagi Egangizni rad etdingiz.”

21 Lekin Muso Egamizga aytdi:

— Mening yonimdagi bu xalq 600.000 jondan iborat. Sen esa: “Ularni bir oy
davomida go‘sht bilan boqaman”, deyapsan! 22 Bor mol–qo‘yimizni so‘ysak ham,
dengizdagi hamma baliqlarni yig‘ishtirib kelsak ham, ularni to‘ydira olarmidik?!

23 Egamiz shunda Musoga aytdi:

— Nima, Men, Egangning qo‘li kaltamidi?! Mening senga aytgan gaplarim bajo
bo‘lishi yoki bo‘lmasligini endi ko‘rasan.

24 Shundan keyin Muso tashqariga chiqib, Egamizning so‘zlarini xalqqa yetkazdi.
So‘ng yetmishta xalq oqsoqolini yig‘ib, ularni Muqaddas chodir atrofiga joylashtirdi.
25 Shunda Egamiz bulut ichida tushib kelib, Muso bilan gaplashdi, Musoga bergan O‘z
Ruhidan olib, yetmishta oqsoqolga berdi. Ruh oqsoqollarni qamrab oldi va ular zikr
tusha boshladilar. Lekin bunday hol boshqa takrorlanmadi.

26 Yetmishta oqsoqolning ikkitasi Muqaddas chodirga bormay qarorgohda qolgan
edi. Birining ismi Eldod, ikkinchisiniki Midod edi. Biroq Egamizning Ruhi ularni ham
qamrab oldi, ular ham qarorgohda zikr tusha boshladilar. 27 Bir o‘spirin yugurib kelib,
Musoga: “Eldod bilan Midod qarorgohda zikr tushishyapti”, dedi. 28 Musoga yoshligidan
xizmat qilib kelgan* yordamchisi Nun o‘g‘li Yoshua dedi:

— Muso hazratlari! Ularni to‘xtating!

29 Muso esa unga shunday javob berdi:

— Sen mening manfaatimni ko‘zlab, shu gaplarni aytyapsanmi? Menga qolsa,
Egamning butun xalqi payg‘ambar bo‘lsin, Egamiz O‘z Ruhini ularning hammasiga
bersin, deyman!

30 Shundan so‘ng Muso bilan Isroil oqsoqollari qarorgohga qaytib kelishdi.

Egamiz bedanalar yuboradi

31 Egamiz shamol qo‘zg‘atdi. Shamol dengizdan* bedanalarni qarorgohga va
qarorgoh atrofiga uchirib keldi–da, ko‘plarini yerga tushirdi. Anchasi esa qarorgohning
aylanasi bo‘ylab bir kunlik masofada, ikki tirsak balandlikda uchib yurgan edi*.
32 Xalq o‘sha kuni kunduzi va kechasi, keyingi kuni ham ertadan kechgacha bedana
yig‘ishtirdi. Eng oz tergan odamniki oltmish savat* chiqdi. Ular bedanalarni quritish
uchun butun qarorgoh atrofiga yoyib tashlashdi. 33 Lekin odamlar go‘shtni endi og‘ziga
olib, hali yeyishga ham ulgurmagan edilarki, Egamiz xalqqa g‘azabini sochib,
qaqshatqich o‘lat yubordi. 34 Bu yerga Xivrut–Xattavo* deb nom berildi, chunki bu yerga
nafsi buzuq odamlar dafn qilingandi.
35 Xalq Xivrut–Xattavodan Xazero‘tga qarab yo‘lga chiqdi. Ular Xazero‘tga yetib
borganlaridan keyin qarorgoh qurishdi.

12–BOB

Maryam jazolanadi

1 Muso Habashistonlik* ayolga uylangani uchun Maryam va Horun Musoga qarshi
gapirdilar. 2 Ikkovi: “Egamiz yolg‘iz Muso orqali gapiribdimi?! U biz orqali ham
gapirmaganmi?!” deyishdi. Egamiz ularning bu gapini eshitdi. 3 Muso juda kamtar odam
edi, yer yuzida kamtarlikda unga teng keladigani yo‘q edi.
4 Egamiz birdan Muso, Horun va Maryamga:
— Uchovingiz ham Uchrashuv chodiriga kelinglar! — deb amr berdi.
Shundan so‘ng uchovlari Uchrashuv chodiriga kelishdi. 5 Egamiz ustun shaklidagi
bulutda tushib, Chodirga kiraverishda turdi va Horun bilan Maryamni chaqirdi. Ikkovi
oldinga chiqdi. 6 Egamiz ularga dedi:
— Mening so‘zlarimni eshitib olinglar. Orangizda payg‘ambar bo‘lganda, Men,
Egangiz, O‘zimni ularga vahiyda ayon qilaman, ular bilan tushlarida gaplashaman.
7 Lekin qulim Muso bilan boshqacha gaplashaman. Mening butun xalqim orasida
ishonchlisi Musodir*. 8 Men u bilan jumboqli bashoratlar orqali emas, balki yuzma–yuz,
ochiq–oydin gaplashaman. Muso Men, Egangizning sharpasini ko‘radi. Nahotki sizlar
Mening qulim Musoga qarshi gapirishdan qo‘rqmadingizlar?!
9 Egamiz ulardan qattiq g‘azablanib, uzoqlashdi.
10 Bulut Chodir tepasidan ketishi bilanoq, Maryam teri kasalligiga* chalinib, qorday
oppoq bo‘lib qoldi. Horun buni ko‘rib, 11 Musoga yolvordi:
— Ey hazratim, biz ahmoqlik qilib qo‘ydik! O‘tinaman, gunohimizdan o‘ting!
12 Maryam ona qornidayoq chiriy boshlagan o‘lik chaqaloqqa o‘xshab qolmasin!
13 Shunda Muso Egamizga iltijo qilib:
— Ey Xudo, unga shifo ber! — deb yolvordi. 14 Egamiz esa Musoga shunday javob
berdi:
— Agar Maryamning o‘z otasi uning yuziga tupurganda, u yetti kun sharmanda bo‘lib
yurmasmidi?! Maryamni qarorgohdan chiqarib yuboringlar, u yetti kundan keyingina
qarorgohga qaytib kelishi mumkin.
15 Shunday qilib, Maryam qarorgohdan haydab chiqarildi. U yetti kun qarorgohdan
tashqarida bo‘ldi. U qaytib kelmaguncha xalq yo‘lga chiqmay turdi.

13–BOB

Ayg‘oqchilar

1 Shundan so‘ng xalq Xazero‘tdan yo‘lga chiqib, Poron cho‘liga* kelib qarorgoh qurdi.
2 Egamiz Musoga dedi: 3 “Men Isroil xalqiga berayotgan Kan’on yurtiga ayg‘oqchilar
yubor. Har bir qabiladan bittadan yo‘lboshchini jo‘nat.”
4 Muso, Egamizning amriga muvofiq, qabila yo‘lboshchilarini Poron cho‘lidan Kan’on
yurtiga jo‘natdi. 5 Ularning ismi quyidagichadir:

Ruben qabilasidan — Zakkur o‘g‘li Shammuva.
6 Shimo‘n qabilasidan — Xo‘ri o‘g‘li Shofot.
7 Yahudo qabilasidan — Yafunax o‘g‘li Xolib.
8 Issaxor qabilasidan — Yusuf o‘g‘li Yixal.
9 Efrayim qabilasidan — Nun o‘g‘li Xo‘sheya*.
10 Benyamin qabilasidan — Rofu o‘g‘li Palti.
11 Zabulun qabilasidan — So‘di o‘g‘li Gaddiyol.
12 Yusuf qabilasidan, ya’ni Manashe qabilasidan — Susix o‘g‘li Gaddi.
13 Dan qabilasidan — Gamali o‘g‘li Omiyol.
14 Osher qabilasidan — Mikoyil o‘g‘li Satur.
15 Naftali qabilasidan — Vofsi o‘g‘li Naxbi.
16 Gad qabilasidan — Moxi o‘g‘li Guval.

17 Muso Kan’on yurtiga ayg‘oqchilikka yuborgan odamlarning ismi ana shulardir. Muso
Nun o‘g‘li Xo‘sheyaning ismini o‘zgartirib, uni Yoshua deb atadi*.
18 Muso ularni Kan’on yurtiga ayg‘oqchilikka yuborar ekan, shunday dedi: “Shimolga
qarab yuringlar, Nagav cho‘lini* aylanib chiqqaningizdan keyin, cho‘ldan shimolda
joylashgan qirli yerlarni ham ko‘rib chiqinglar. 19 U yerlar qanday joy, u yerda
yashayotgan xalq kuchlimi yoki zaifmi, ko‘pmi yoki ozmi, 20 yurti yaxshimi yoki
yomonmi, shaharlari devor bilan o‘ralganmi yoki yo‘qmi, 21 yerlari unumdormi yoki
kamhosilmi, daraxtlari bormi yoki yo‘qmi, bilib kelinglar. O‘sha yurtning mevalaridan
olib kelishning ilojini qilinglar.” Uzum mavsumi endi boshlangan edi.
22 Shunday qilib, ayg‘oqchilar shimolga qarab ketishdi. Zin cho‘lidan boshlab, Levo–
Xomat* yaqinidagi Rexob shahrigacha bo‘lgan hamma joylarni ko‘zdan kechirib
chiqishdi. 23 Dastavval ular Nagav cho‘lini kesib o‘tib, Xevron shahriga* borishgandi.
O‘sha yerda Onoq avlodidan kelib chiqqan* Oximan, Sheshay va Talmay urug‘lari
yashashardi. Xevron Misrdagi Zo‘van shahridan yetti yil oldin qurilgan edi. 24 U yerdan
ayg‘oqchilar Eshko‘l soyligiga borib, bir bosh uzumni shoxi bilan qirqib olishgandi. Bu
bosh uzumni ikki kishi xodaga osib ko‘tarib ketgandi. Bundan tashqari, ular anor va
anjirlardan ham olishgandi. 25 Ayg‘oqchilar soylikdan bir bosh uzum qirqib olganlari
uchun o‘sha soylikka Eshko‘l* deb nom berildi.
26 Nihoyat, ular yurtni ko‘rib chiqib, qirqinchi kuni qaytishdi. 27 Poron cho‘lidagi
Kadeshga* — Muso, Horun va butun Isroil jamoasi oldiga kelishdi. Ularga ko‘rgan–
bilganlarini aytib, o‘sha yurtning mevalarini ko‘rsatishdi. 28 Ular Musoga shunday deb
aytishdi:
— Siz bizni yuborgan yurtga bordik, u yerda chindan ham sut va asal oqib yotibdi*.

Mana bu mevalar o‘sha yerdan. 29 Lekin u yerning xalqlari kuchli, shaharlari mustahkam
va nihoyatda ulkan ekan. Biz u yerda hatto Onoq avlodini* ham ko‘rdik! 30 Omolek xalqi
— Nagav cho‘lida, Xet, Yobus va Amor xalqlari — qirlarda, Kan’on xalqi esa O‘rta yer
dengizi qirg‘oqlarida va Iordan daryosi bo‘ylarida istiqomat qilishar ekan.
31 Xolib Musoning ro‘parasida turgan xalqni tinchlantirib:
— Bo‘la qolinglar, o‘sha yurtga hujum qilib, uni egallab olaylik. O‘sha yurtni bosib
olishga albatta kuchimiz yetadi, — dedi.
32 Lekin Xolib bilan birga borganlar:
— U xalqqa bas kela olarmidik?! Ular bizdan kuchliroq–ku! — deyishdi.
33 Shunday qilib, ular o‘zlari ko‘rib kelgan yurt to‘g‘risida Isroil xalqi orasida
bo‘lmag‘ur mish–mishlar tarqata boshlashdi: “Biz ko‘rib kelgan yurt u yerda yashashga
boradiganlarni yutib yuborar ekan. O‘sha yurtdagi hamma odamlar dev qomat ekan.
34 Biz u yerda hatto ulkan pahlavonlar* urug‘idan bo‘lgan Onoq avlodini ko‘rdik.
Ularning oldida o‘zimizni xuddi chigirtkaday his qildik. Ha, ularning nazarida ham biz
chigirtkaday edik.”

14–BOB

Xalq zorlanadi

1 Keyin butun jamoa fig‘on chekib, tun bo‘yi yig‘i–sig‘i qilib chiqdi. 2 Jamiki Isroil xalqi
Muso va Horundan ming‘irlab nolib, ularga shunday dedi:
— Qaniydi, Misrda o‘lib ketganimizda yoki shu sahroda jon berganimizda edi! 3 Agar
jangda qirilib ketadigan bo‘lsak, nima uchun Egamiz bizni o‘sha yurtga olib boryapti?
Bizning xotinu bola–chaqalarimiz dushmanga o‘lja bo‘ladi–ku! Bundan ko‘ra, Misrga
qaytib ketganimiz yaxshiroq emasmi?!
4 Shundan so‘ng ular o‘zaro: “O‘zimizga bir yo‘lboshchi tanlaymiz–u, Misrga qaytib
ketamiz”, deb kelishib olishdi. 5 Muso bilan Horun esa butun Isroil jamoasi oldida muk
tushishdi. 6 Yurtni ko‘rib kelgan ayg‘oqchilarning ikkitasi Nun o‘g‘li Yoshua va Yafunax
o‘g‘li Xolib qayg‘udan kiyimlarini yirtishdi. 7 Ikkovi jamiki Isroil jamoasiga deyishdi:
— Biz ko‘rib kelgan yurt — juda ham yaxshi joy! 8 Agar Egamiz bizdan mamnun
bo‘lsa, U bizni o‘sha yurtga olib kiradi, sut va asal oqib yotgan o‘sha yurtni* bizga beradi.
9 Faqat Egamizga qarshi isyon qilmanglar! U yurtning xalqidan qo‘rqmanglar! Ular biz
uchun oson o‘lja bo‘lishadi. Ular pushti panohidan ayrilgan, Egamiz esa biz bilan bo‘ladi.
Ulardan qo‘rqmanglar!
10 Lekin butun jamoa: “Yoshua va Xolibni toshbo‘ron qilamiz!” deb po‘pisa qildi.
Shunda Egamiz ulug‘vorligini Uchrashuv chodirida jamiki Isroil xalqiga zohir qildi.

Muso xalq uchun iltijo qiladi

11 Egamiz Musoga dedi:
— Qachongacha bu xalq Meni xo‘rlaydi?! Ularning orasida qancha mo‘jiza ko‘rsatgan
bo‘lsam–u, qachongacha Menga ishonmay yuradi?! 12 Men o‘lat yuborib bu xalqni qirib
tashlayman. Sendan esa ulardan ham kuchliroq va buyukroq bir xalq yarataman.
13 Ammo Muso Egamizga shunday javob berdi:
— Sen bu xalqni O‘z qudrating bilan Misrliklar orasidan olib chiqqan eding–ku! Agar
xalqingni qirib tashlasang, Misrliklar bu haqda eshitishadi. 14 Ular bu yurtda istiqomat
qilayotgan xalqlarga ham bu haqda xabar berishadi. Ey Egam, o‘sha xalqlar Sen biz bilan

ekaningni bilishadi. Sen biz bilan yuzma–yuz koʻrishganingni, Sening buluting doimo
bizning tepamizda turganini, Sen bizni kunduzi ustun shaklidagi bulut ichida, kechasi
ustun shaklidagi alanga ichida yoʻlga boshlaganingni ular bilishadi, axir! 15-16 Bordi–yu,
Sen xalqingning hammasini birday qirib tashlasang, Sening ulugʻvorliging haqida
eshitgan xalqlar: “Isroil xalqining Egasi qasam ichib vaʼda bergan yurtga Oʻz xalqini olib
kira olmagani uchun ularni sahroda nobud qilib yuboribdi”, deb aytishmaydimi?! 17 Yo
Rabbiy, iltijo qilaman, Oʻz matonatingni koʻrsat. Sen Oʻzing aytgansan*: 18 “Men,
Egangizning jahli tez emas, sodiq sevgim moʻldir. Fosiqlikni, isyonni kechiraman. Lekin
aybdorni aslo jazosiz qoldirmayman. Men ularni jazolayman, ularning gunohlari
oqibatidan farzandlari, nabiralari va chevaralari ham qochib qutulmaydi.” 19 Oʻtinaman,
cheksiz sevging tufayli bu xalqning gunohidan oʻt. Axir, Sen ularni Misrdan
chiqqanlaridan beri kechirib kelyapsan.

20 — Iltimosingga muvofiq ularni kechiraman, — dedi Musoga Egamiz. 21 — Lekin
Men barhayot Xudo boʻlganim haqi, yer yuzini toʻldirgan ulugʻvorligim haqi, ont ichib
aytamanki, 22-23 bu odamlarning birortasi Men otalariga vaʼda qilgan yurtga kirmaydi.
Ular Mening buyuk qudratimni, Misrda va sahroda qilgan moʻjizalarimni koʻra turib
Menga quloq solmadilar, Meni qayta–qayta sinadilar. Meni xoʻrlagan bu odamlar Kanʼon
yurtini koʻrmaydilar. 24 Lekin qulim Xolib bundaylardan emas. U Menga sodiq qoldi.
Shuning uchun Men uni oʻzi koʻrib kelgan oʻsha yurtga olib kiraman. Uning nasli yurtni
egallaydi. 25 Endi esa Omolek va Kanʼon xalqlari yashaydigan vodiylarga bora
koʻrmanglar. Ertagayoq orqaga qaytinglar, Qizil dengiz* yoʻlidagi sahroga boringlar.

Egamiz xalqni shikoyat qilgani uchun jazolaydi

26 Egamiz Muso bilan Horunga dedi:

27 — Qachongacha bu qabih jamoa Mendan noliyveradi?! Men Isroil xalqining
mingʻirlab nolishini eshitdim, 28 borib ularga Mening bu gapimni ayt: “Barhayot Xudo
boʻlganim haqi, ont ichib aytamanki, mingʻirlab noliganlaringizni* Men boshingizga
solaman. Men, Egangiz, aytdim. 29 Jasadlaringiz mana shu sahroda qoladi. Roʻyxatga
kirgan yigirma va undan yuqori yoshdagilar — Mendan mingʻirlab noliganlarning
hammasi 30 Men ont ichib, sizlarga yashash uchun bermoqchi boʻlgan yurtga
kirishmaydi. U yurtga faqat Yafunax oʻgʻli Xolib bilan Nun oʻgʻli Yoshua kirishadi.
31 Sizlar, bolalarimiz u yerda dushmanga oʻlja boʻladi, deb aytdingiz. Ammo Men
bolalaringizni oʻsha yerga olib kiraman. Sizlar rad etgan oʻsha yurtdan ular bahra
olishadi. 32 Sizlarning jasadlaringiz esa mana shu sahroda qolib ketadi. 33 Bolalaringiz
sahroda qirq yil tentirab yuradi. Hammangiz mana shu sahroda nobud
boʻlmaguningizcha, bolalaringiz sizning sadoqatsizligingiz uchun azob tortishadi.
34 Sizlar oʻsha yurtni qirq kun davomida koʻrib qaytib kelgan edingizlar. Endi gunohingiz
uchun qirq yil, har bir kun evaziga bir yildan jazo tortib yurasizlar. Menga qarshi
chiqqanlarning holi ne kechishini* ana shunda bilasizlar! 35 Menga qarshi yigʻilgan mana
shu qabih jamoaning hammasini Men shunday ahvolga solamanki, ular mana shu
sahroda qirilib, yoʻq boʻlib ketishadi. Buni Men, Egangiz, aytdim.”

36 Muso Kanʼon yurtiga aygʻoqchi qilib yuborgan oʻnta odam boʻlmagʻur gaplar
tarqatib, jamoaning Egamizdan mingʻirlab nolishiga sababchi boʻlgan edi. 37 Oʻsha yurt
haqida noxush xabar olib kelgan bu odamlar oʻlatga chalinib, Egamizning oldida jon
berishdi. 38 Aygʻoqchilardan faqat Nun oʻgʻli Yoshua bilan Yafunax oʻgʻli Xolib tirik qoldi.

Kan’on yurtini bosib olishga birinchi urinish

39 Muso jamiki Isroil xalqiga shu gaplarni aytganda, xalq chuqur qayg‘uga botdi.
40 Ertasiga ular tong saharda turdilar, Kan’ondagi qirlarga tomon jo‘nayotib shunday dedilar:

— Qani, ketdik, gunoh qilganimizni anglab yetdik. Mana endi Egamiz bizga va’da qilgan o‘sha yurtga kirishga tayyormiz.

41 Lekin Muso:

— Nima uchun Egamizning amriga yana itoatsizlik qilyapsizlar? — dedi. — Bu bilan hech narsaga erisholmaysizlar–ku! 42 U yerga bormanglar. Egamiz sizlar bilan emas! Dushmanlaringiz oldida mag‘lub bo‘lasizlar! 43 Omolek va Kan’on xalqlari sizlarga qarshilik ko‘rsatishadi. Qirilib ketasizlar. Sizlar Egamizdan yuz o‘girganingiz uchun, U sizlar bilan birga bo‘lmaydi.

44 Biroq Isroil xalqi bilganidan qolmay o‘sha yerdagi qirlarga chiqdi. Egamizning Ahd sandig‘i bilan Muso esa qarorgohda qolishdi. 45 O‘sha qirlarda yashaydigan Omolek va Kan’on xalqlari pastga tushib, Isroil xalqiga hujum qilishdi, ularni Xo‘rmaxgacha* quvib borishdi.

15–BOB

Qurbonliklarga oid qonunlar

1-2 Muso orqali Isroil xalqiga Egamiz quyidagi qonunlarni berdi: Egamiz sizlarga beradigan yurtga o‘rnashib olganingizdan keyin mana bu qonunlarga rioya qiling:
3 Egamizga atab, buqa, qo‘chqor, qo‘zi va uloqchalaringizdan qurbonliklar keltiring. Ularni kuydiriladigan qurbonlik, tinchlik qurbonligi, ko‘ngildan chiqarib beriladigan qurbonlik va bergan va’dangizga muvofiq keltiriladigan qurbonlik qiling. Ularni belgilangan bayram kunlarida ham keltiring. Bu qurbonliklarning ma’lum qismlarini qurbongohda kuydiring, shunda Egamizga yoqimli hid boradi. 4-5 Bu qurbonliklarga qo‘shib, Egamizga atab, albatta don va sharob nazrlarini keltirishingiz kerak.

Qo‘zi yoki uloqchani qurbonlik qilganingizda, don nazrini — ikki kosa* zaytun moyi aralashtirilgan to‘rt kosa* sifatli unni hamda ikki kosa sharobni nazr qilinglar.

6 Qo‘chqorni qurbonlik qilganingizda, don nazrini — uch kosa* zaytun moyi aralashtirilgan sakkiz kosa* sifatli unni va 7 uch kosa sharobni nazr qilinglar. Bu qurbonlik va nazrlardan Egamizga yoqimli hid boradi.

8 Buqani Egamizga atab, kuydiriladigan qurbonlik, bergan va’dangizga muvofiq qilinadigan qurbonlik yoki tinchlik qurbonligi qilganingizda, 9 qurbonlikka qo‘shib to‘rt kosa* zaytun moyi aralashtirilgan o‘n ikki kosa* sifatli unni 10 va to‘rt kosa sharobni nazr qilinglar. Olovda kuydiriladigan bu qurbonlik va nazrlardan Egamizga yoqimli hid boradi.

11 Shunday qilib, buqa, qo‘chqor, qo‘zi yoki uloqchani qurbonlik qilganingizda, shu nazrlarni qurbonlikka qo‘shib keltiringlar. 12 Qurbonlik qilinadigan hayvonlarning soni qancha bo‘lishidan qat’i nazar, har bir hayvonga qo‘shib, belgilangan miqdorda don bilan sharob nazr qilinglar. 13 Isroil xalqidan bo‘lgan har bir odam qurbonlikni Egamizga yoqimli hid borishi uchun olovda kuydirganda, mana shu qoidalarga rioya qilishi shart.
14 Agar orangizda o‘rnashib olgan yoki vaqtincha istiqomat qilayotgan birorta musofir Egamizga yoqimli hid borishi uchun qurbonlikni olovda kuydirmoqchi bo‘lsa, u ham shu

qoidalarga rioya qilsin.
15 Isroil jamoasi uchun ham, orangizda yashayotgan musofir uchun ham qonun–
qoida bir. Egamizning oldida sizlar ham, musofirlar ham birdir. Bu qonun–qoidaga
doimo, avlodlaringiz osha rioya qilinglar. 16 Sizlar uchun ham, orangizda yashayotgan
musofirlar uchun ham qonun–qoida birdir.
17-18 Muso orqali Isroil xalqiga Egamiz yana quyidagi qonunlarni berdi: Egamiz
sizlarni boshlab borayotgan yurtga kirganingizdan keyin, 19 o‘sha yurtning nonidan
tanovul qilasizlar. O‘shanda noningizning bir qismini Egamizga nazr qilinglar.
20 Xamirning birinchi zuvalasidan yopilgan nonni Egamizga nazr qilinglar. Buni
yanchilgan donni nazr qilganday nazr qilinglar. 21 Xamirning birinchi zuvalasini avlodlar
osha Egamizga nazr qilinglar.
22-23 Agar Egamiz men orqali bergan bu amrlarning birortasiga — Egamiz amr etgan
kundan boshlab avlodlaringiz osha rioya qilmasangiz, 24 agar jamoa bu xatoga bilmagan
holda yo‘l qo‘ygan bo‘lsa, butun jamoa Egamizga yoqimli hid borishi uchun bitta buqani
kuydirib qurbonlik qilsin. Ular buqaga qo‘shib, belgilangan miqdorda don bilan sharob
nazrini keltirishsin. Bundan tashqari, bitta takani gunoh qurbonligi qilishsin. 25 Shunday
qilib, ruhoniy butun Isroil jamoasini gunohlaridan poklaydi. Jamoa bilmasdan xato
qilgani uchun kechiriladi, chunki ular qilgan xatosi uchun Egamizga qurbonlik qilib,
olovda kuydirgan va gunoh qurbonligini keltirgan bo‘ladilar. 26 Egamiz butun Isroil
jamoasini va sizlarning orangizda yashayotgan musofirlarni kechiradi, chunki butun
xalq bilmay xato qilgan edi.
27 Agar birorta odam bilmasdan gunoh qilib qo‘ysa, bir yoshli echkini gunoh
qurbonligi qilsin. 28 Ruhoniy Egamizning oldida o‘sha odamni gunohidan poklaydi, o‘sha
odam kechiriladi. 29 Bilmasdan gunoh qilib qo‘ygan Isroil odami uchun ham, orangizda
istiqomat qilayotgan musofir uchun ham qonun bir.
30 Lekin qasddan gunoh qilgan odam, Isroil xalqidanmi yoki musofirmi, Egamizga
shak keltirgan bo‘ladi. O‘sha odam Isroil xalqi orasidan yo‘q qilinsin. 31 U Egamizning
so‘zlarini nazar–pisand qilmagani uchun, amrlariga itoat qilmagani uchun albatta yo‘q
qilinsin. Uning gunohi o‘z gardanida qoladi.

Shabbat qoidalarini buzgan odam haqida

32 Bir kuni Isroil xalqi sahroda turgan paytda, Shabbat kuni o‘tin terib yurgan bir
odamni ushlab olishdi*. 33 Ular o‘sha odamni Muso, Horun va butun Isroil jamoasi oldiga
olib kelishdi. 34 Biroq bu odamni nima qilish kerakligini hali aniq bilishmagani uchun uni
qamab qo‘yishdi. 35 Keyin Egamiz Musoga dedi:
— Bu odamning jazosi o‘limdir. Butun jamoa uni qarorgohdan tashqariga olib chiqib,
toshbo‘ron qilsin.
36 Egamiz Musoga amr etganday, butun jamoa o‘sha odamni qarorgohdan tashqariga
olib chiqib, toshbo‘ron qilib o‘ldirdi.

Popuklar haqida qoidalar

37 Shundan keyin Egamiz Musoga dedi:
38 — Isroil xalqiga Mening shu gapimni yetkaz: “Sizlar avlodlar osha
kiyimlaringizning etagiga popuk qilib osib yuringlar. Har bir popukka ko‘k ip qo‘shib
eshilgan bo‘lsin. 39 Popuklar sizlarga Men, Egangizning amrlarini eslatib turadi. Ularni
ko‘rganingizda Men sizlarga bergan hamma amrlarimni eslab, bajarasizlar. Xiyonatga

yetaklovchi ko‘nglingiz, ko‘zingiz ehtiroslariga ortiq berilmaysizlar. 40 Shunda sizlar
Mening hamma amrlarimni yodingizda tutib bajarasizlar, Menga bag‘ishlangan
bo‘lasizlar. 41 Men Egangiz Xudoman. Men Xudoyingiz bo‘laman deb, sizlarni Misrdan
olib chiqqanman. Ha, Men Egangiz Xudoman.”

16–BOB

Ko‘rax, Datan va Aburamning isyoni

1-2 Bir kuni Levi qabilasining Qohot urug‘idan bo‘lgan Izxor o‘g‘li Ko‘rax Musoga
qarshi isyon ko‘tardi. U Ruben qabilasidan Eliyobning o‘g‘illari Datan va Aburamni
hamda Palaf o‘g‘li Onni yoniga qo‘shib oldi. Isroil xalqining 250 yo‘lboshchisi ham ularga
qo‘shildi. Bu yo‘lboshchilar jamoa kengashining tayinlangan a’zolaridan bo‘lib, obro‘li
kishilar edi.

3 Ular Muso bilan Horunga qarshi yig‘ilishib, ikkoviga shunday deyishdi:

— Sizlar haddingizdan oshib ketdingiz! Axir, butun jamoa va uning har bir a’zosi
Egamizga tegishli–ku! Egamiz hammamiz bilan birgadir. Nimaga endi sizlar o‘zingizni
Egamizning jamoasidan ustun qo‘yyapsizlar?!

4 Muso bu gapni eshitib, muk tushdi*. 5 So‘ng Ko‘rax va uning sheriklariga shunday
dedi:

— Ertaga ertalab Egamiz O‘zinikilarni ko‘rsatadi. O‘ziga tegishli bo‘lgan odamini
ayon qiladi. Kim Xudoning tanlangani bo‘lsa, Egamiz o‘shani O‘ziga yaqinlashtiradi.
6 Sen, Ko‘rax, hamtovoqlaring bilan birga olovkuraklaringizni olib, 7 ertaga Egamiz
oldida o‘sha olovkuraklaringizda tutatqi tutatinglar. O‘shanda Egamiz kimni tanlab
olganini, kim Unga tegishli ekanligini ko‘ramiz*. Ey levilar, sizlar haddingizdan oshib
ketdingizlar!

8 Keyin Muso:

— Ey levilar, eshitib olinglar! — dedi Ko‘raxga. 9 — Isroil xalqining Xudosi sizlarni
Isroil jamoasidan ajratib oldi. Egamizning Muqaddas chodiridagi yumushlarni
bajarishingiz uchun sizlarni O‘ziga yaqinlashtirdi. Jamoa vakili sifatida butun xalqqa
xizmat qilishingiz uchun sizlarni tanlab oldi. Nahotki shunisi sizlarga kamlik qilsa?!
10 Egamiz sizlarni, hamma levi birodarlaringizni O‘ziga yaqinlashtirgan bo‘lsa, yana
ruhoniylikni ham talab qilishingiz nimasi? 11 Horun kim bo‘ptiki, sizlar undan ming‘irlab
nolisangiz? Sizlar asli Horunga emas, Egamizga qarshi yig‘ilgansiz!

12 Muso Eliyobning o‘g‘illari Datan va Aburamni chaqirib kelgani odam yubordi.
Lekin ular:

— Bormaymiz! — deb aytib yuborishdi. 13 — Ey Muso, sen bizni sut va asal oqib
yotgan yurtdan* olib chiqib, sahroda halok qilmoqchi bo‘lding. Shunisi yetmaganday,
endi bizga xon bo‘lmoqchimisan?! 14 Sen bizni sut va asal oqib yotgan yurtga olib
kirmading, mulk qilib dalalaru uzumzorlarni bermading. Shu paytgacha bizni laqillatib
kelyapsan. Yo‘q, oldingga bormaymiz!

15 Bularni eshitgan Muso qattiq g‘azablanib, Egamizga aytdi:

— Ularning nazrlarini qabul qilma. Men ularning birortasiga yomonlik qilmadim–ku,
ularning birontasidan hatto eshagini ham olmadim–ku!

16 So‘ng Muso Ko‘raxga aytdi:

— Ertaga o‘zing ham, hamma sheriklaring ham Egamiz oldida hozir bo‘linglar.

Horun ham shu yerda bo‘ladi. 17 250 nafar yo‘lboshchining hammasi olovkuraklariga
tutatqi solib, Egamizning huzuriga olib kelishsin. Sen ham olovkuragingni olib kel,
Horun ham o‘zinikini olib keladi.
18 Shunday qilib, ertasi kuni har bir odam o‘z olovkuragini oldi. Olovkurakka cho‘g‘
solib, cho‘g‘ ustiga tutatqi tashladi. Ular Muso va Horun bilan birga Uchrashuv chodiri
kiraverishiga kelib turishdi. 19 Ko‘rax butun jamoani Uchrashuv chodiri kiraverishi
oldiga — Muso va Horunning ro‘parasiga to‘plagach, Egamiz ulug‘vorligini butun
jamoaga zohir qildi.
20 Keyin Egamiz Muso bilan Horunga:
21 — Bu jamoadan nari turinglar, — dedi. — Men ularni bir zumda yo‘q qilib
yuboraman.
22 Ikkovi esa muk tushib:
— Ey Xudoyim! Ey odamzod ruhlarining Xudosi! — deb iltijo qilishdi. — Gunoh
qilgan bitta odam–ku, Sen esa butun jamoadan g‘azablanyapsanmi?!
23 Egamiz Musoga dedi:
24 — Jamoaga ayt, ular Ko‘rax, Datan va Aburamning chodirlaridan uzoqroq
turishsin.
25 Muso o‘rnidan turib, Datan bilan Aburamning oldiga ketdi. Isroil oqsoqollari ham
Musoga ergashishdi. 26 Muso jamoaga dedi:
— Bu qabih odamlarning chodirlaridan uzoqroq turinglar. Ularning biror narsasiga
ham tegmanglar. Aks holda, ularning hamma gunohlari uchun sizlar nobud bo‘lasizlar.
27 Jamoa Ko‘rax, Datan va Aburamning chodirlaridan uzoqroqqa borib turishdi.
Datan va Aburam esa xotinlari, bola–chaqalari bilan chodirlarining kiraverishiga chiqib
turgan edilar.
28 — Bu ishlarning hammasini ado etishim uchun meni Egamiz yuborganini, bularni
o‘zimcha qilmaganimni shundan bilasizlar, — dedi Muso. 29 — Agar Ko‘rax va uning
sheriklari o‘z ajali bilan, hamma odamlar kabi, o‘lishsa, meni Egamiz jo‘natmagan
bo‘ladi. 30 Bordi–yu, Egamiz favqulodda bir narsa qilsa — yer yorilib ularni bor narsasi
bilan yutib yuborsa, ular o‘liklar diyoriga* tiriklayin kirib ketishsa, bilinglarki, o‘sha
odamlar Egamizni xo‘rlagan bo‘ladi.
31 Muso gapini endi tugatgan ham ediki, o‘sha odamlarning oyog‘i ostidagi yer yorilib
ketdi. 32 Yerning og‘zi katta ochilib, ularni oila a’zolari, Ko‘raxning hamma sheriklari,
mol–mulki bilan birga yutib yubordi. 33 Shunday qilib, ular jamiki mol–mulki bilan birga
tiriklayin o‘liklar diyoriga kirib ketishdi. Yer yopilib, ularni jamoa orasidan g‘oyib qildi.
34 Ularning faryodidan atrofda turgan Isroil xalqi: “Bizni ham yer yutib yubormasin!”
deb baqirgancha tumtaraqay bo‘ldi. 35 Shu payt Egamiz alanga yuborib, tutatqi tutatgan
250 nafar odamni kuydirib yubordi.

Olovkuraklar

36 Egamiz yana Musoga dedi:
37-38 — Horunning o‘g‘li ruhoniy Elazarga ayt. U gunohlari uchun o‘ldirilganlarning
olovkuraklarini yong‘in orasidan yig‘ishtirib olsin. Olovkuraklardagi cho‘g‘larni bir
chetga chiqarib tashlasin, chunki olovkuraklar muqaddasdir. Bu olovkuraklar Menga
nazr qilish uchun foydalanilganda, muqaddas bo‘lgan. Bu olovkuraklarni yoyib,
qurbongohni qoplash uchun tunuka qilinglar. Bular Isroil xalqini ogohlantiruvchi bir

belgi bo‘ladi.

39 Ruhoniy Elazar kuyib o‘lganlarning tutatqi tutatgan bronza olovkuraklarini
yig‘ishtirib oldi. So‘ng u olovkuraklarni yoyib, qurbongohni qoplash uchun tunuka
holiga keltirdi. 40 Horunning naslidan bo‘lmagan birorta odam Egamizning oldida tutatqi
tutatib, Ko‘rax va uning sheriklari kabi halok bo‘lmasligi uchun, bu tunuka Isroil xalqini
ogoh qilib turardi. Shunday qilib, Egamizning Muso orqali bergan ko‘rsatmalari amalga
oshirildi.

Horun xalqni qutqaradi

41 Ertasiga jamiki Isroil jamoasi Muso bilan Horundan norozi bo‘lib: “Egamizning
xalqini sizlar o‘ldirdingizlar”, deb ming‘irlay boshladi. 42 Jamoa ularga qarshi yig‘ilgan
paytda Muso bilan Horun Uchrashuv chodiri tomon qarashsa, Chodirni bulut qoplab
olgan, Egamiz ulug‘vorligini zohir qilgan ekan. 43 Ular Uchrashuv chodirining old
tomoniga borib turishganda, 44 Egamiz Musoga dedi:

45 — Bu jamoadan nari tur, Men ularni hozirning o‘zidayoq yo‘q qilib yuboraman.

Ammo Muso bilan Horun yerga muk tushdi. 46 Muso Horunga dedi:

— Qani, bo‘l, olovkuragingni ol! Qurbongohdan olovkurakka cho‘g‘ solib, ustiga
tutatqi tashla–da, tezroq jamoaning oldiga bor. Ularni gunohlaridan pokla. Egamiz
g‘azabini sochdi, odamlar o‘latdan nobud bo‘lyapti.

47 Horun Muso buyurganday qilib, jamoaning orasiga yugurib bordi. Odamlar
haqiqatan ham o‘latdan nobud bo‘lishayotgan edi. Horun tutatqi tutatib, Isroil xalqini
gunohlaridan pokladi. 48 U tiriklar bilan marhumlarning o‘rtasiga turgan edi, o‘lat
to‘xtadi. 49 Lekin o‘latdan 14.700 kishi nobud bo‘lgan edi. Ko‘raxning qilmishi tufayli
o‘lganlar bu hisobga kirmasdi. 50 O‘lat to‘xtagandan keyin Horun Uchrashuv chodirining
kiraverishida turgan Musoning yoniga qaytib keldi.

17–BOB

Horunning tayog‘i

1 Shundan keyin Egamiz Musoga dedi:

2 — Isroil xalqiga ayt, ular har bir qabila yo‘lboshchisining tayog‘ini* olib kelishsin.
Hammasi bo‘lib o‘n ikkita tayoq bo‘lsin. Har bir qabila yo‘lboshchisining ismini o‘z
tayog‘iga yozib qo‘yinglar. 3 Levi qabilasining tayog‘iga Horunning ismini yozinglar, har
bir qabila yo‘lboshchisidan bittadan tayoq bo‘lishi lozim. 4 Sen tayoqlarni Uchrashuv
chodiriga olib kirib, Men sen bilan uchrashadigan joyga — Ahd sandig‘i* oldiga qo‘y.
5 Men tanlagan odamning tayog‘i kurtak chiqaradi. Shunday qilib, senga qarshilik
qilayotgan Isroil xalqining ming‘irlab nolishlariga Men chek qo‘yaman.

6 Muso Isroil xalqiga Egamizning gaplarini aytdi. Yo‘lboshchilar har bir qabila
nomidan bittadan tayoqni berishdi, hammasi bo‘lib o‘n ikkita tayoq bo‘ldi. Horunning
tayog‘i ham o‘sha tayoqlar orasida edi. 7 Muso tayoqlarni Muqaddas ahd chodiriga* —
Egamizning oldiga qo‘ydi.

8 Ertasi kuni Muso Muqaddas ahd chodiriga kirib qarasa, Horunning Levi qabilasini
ifoda etgan tayog‘i kurtak yozibdi, ko‘karib, gullabdi, hatto bodom tugibdi. 9 Muso
Egamizning huzuridagi hamma tayoqlarni Isroil xalqi oldiga olib chiqib ko‘rsatdi. Har
bir yo‘lboshchi o‘z tayog‘ini oldi. 10 Egamiz Musoga shunday amr berdi:

— Horunning tayog‘ini Ahd sandig‘i oldiga qaytarib olib borib qo‘y. Tayoq doimo

oʻsha yerda saqlanib, isyonchilarni ogoh qilib tursin. Shunday qilib, sen ularning mingʻirlab nolishlariga chek qoʻyib, ularning qirilib ketishiga yoʻl qoʻymaysan.

11 Egamiz qanday amr etgan boʻlsa, Muso hammasini bajardi.

12 Isroil xalqi esa Musoga faryod qildi:

— Shoʻrimiz quridi! Kunimiz bitdi! 13 Egamizning Muqaddas chodiriga yaqin borganlar nobud boʻlishadi. Biz hammamiz qirilib ketamiz!

18–BOB

Ruhoniylar va levilarning burchlari

1 Egamiz Horunga dedi: “Sen, oʻgʻillaring va butun Levi qabilasi Muqaddas chodirga nisbatan qilingan har qanday ayb uchun javobgar boʻlasizlar. Ruhoniylik xizmatida yoʻl qoʻyilgan ayblar uchun esa faqatgina sen va oʻgʻillaring javobgar boʻlasizlar. 2 Qabiladosh levi birodarlaringni yoningga ol. Sen oʻgʻillaring bilan Muqaddas ahd chodirida* xizmat qilayotganingda, ular sizlarga yordam berishadi. 3 Levilar sizlarning nazoratingiz ostida xizmat qilib, Muqaddas chodirga oid barcha yumushlarni bajarishadi. Lekin ular muqaddas jihozlarga va qurbongohga zinhor yaqinlashmasinlar, aks holda, ular ham, sizlar ham halok boʻlasizlar. 4 Levilar sizlarga qoʻshilishib, Uchrashuv chodiridagi barcha vazifalarni bajarishsin. Levilardan boshqa birortasi sizlar bilan birga xizmat qilmasin. 5 Mening gʻazabim Isroil xalqiga qarshi yana avj olmasligi uchun Chodirning Muqaddas xonalarida va qurbongohda faqatgina sen oʻgʻillaring bilan xizmat qilgin. 6 Levi birodarlaringni Men Oʻzim senga yordamchi qilib, Isroil xalqi orasidan tanlab olganman. Ular Uchrashuv chodirida xizmat qilishlari uchun Men, Egangizga bagʻishlangan. 7 Shunday boʻlsa–da, qurbongoh va ichki parda orqasidagi Eng muqaddas xona bilan bogʻliq boʻlgan barcha ruhoniylik xizmatini faqat sen oʻgʻillaring bilan bajar. Ruhoniylikni Men sizlarga hadya qilib berdim. Muqaddas buyumlar oldiga kelgan boshqa har qanday odamning jazosi oʻlimdir.”

Ruhoniylarning ulushi

8 Egamiz yana Horunga dedi: “Isroil xalqi Menga olib kelgan hamma muqaddas nazrlarni nazorat qilishni senga topshirdim. Bu nazrlarni senga va oʻgʻillaringga doimiy ulush qilib berdim. 9 Isroil xalqi Menga beradigan eng muqaddas nazrlarning, ya’ni don nazri, gunoh qurbonligi va ayb qurbonliklarining kuydirilmaydigan qismi sen bilan oʻgʻillaringga tegishlidir. 10 Bularni muqaddas joyda tanovul qilinglar. Bu nazrlarni faqat erkaklar tanovul qilishlari mumkin. Bu nazrlarni gʻoyat muqaddas deb bilinglar.

11 Qurbongoh oldida Isroil xalqi yuqoriga koʻtarib, Menga bergan boshqa hamma nazrlar ham sen bilan oʻgʻil–qizlaringning doimiy ulushidir. Xonadoningdagi har bir pok odam bu nazrlarni tanovul qilishi mumkin.

12 Odamlar Men, Egangizga nazr qilgan ilk hosilning eng sifatli zaytun moyini, sharobini va donini ham Men sizlarga berdim. 13 Menga nazr qilingan butun yurtning ilk hosili sizlarniki boʻladi. Xonadoningizdagi har bir pok odam bu nazrlarni tanovul qilishi mumkin. 14 Isroilda Menga tamomila bagʻishlangan har bir narsa sizlarniki boʻladi. 15 Isroil xalqi Menga nazr qilgan har bir toʻngʻich oʻgʻil va hayvonlarining birinchi erkak bolasi ham sizlarnikidir. Lekin sizlar ularning har bir toʻngʻich oʻgʻli evaziga hamda harom hayvonning* birinchi erkak bolasi evaziga ulardan kumush olishlaringiz shart. 16 Har bir toʻngʻich oʻgʻil bir oylik boʻlganda, ularning evaziga besh boʻlakdan kumush

olinglar. Har bir kumush bo‘lakning og‘irligi 2,5 misqol bo‘lsin*.
17 Lekin sigirning, qo‘yning va echkining birinchi bolasi evaziga hech qanday to‘lov
olma. Bu jonivorlar faqat Menga tegishlidir. Ularning qonini qurbongohga sep, yog‘ini
esa Men, Egangizga yoqimli hid kelishi uchun olovda kuydir. 18 Qo‘chqorning yuqoriga
ko‘tarilgan to‘shi va o‘ng soni seniki bo‘lgani kabi, bu jonivorlarning go‘shti ham seniki
bo‘ladi. 19 Isroil xalqi Menga keltiradigan ehsonlarning hammasini Men senga va o‘g‘il–
qizlaringga doimiy ulush qilib beraman. Bu sen va sening nasling bilan Mening
o‘rtamdagi qat’iy ahddir.”
20 So‘ng Egamiz Horunga yana dedi: “Sizlar Isroil yurtida ulush olmaysizlar, xalqingiz
orasida sizlarga bir bo‘lak yer ham berilmaydi. Zotan, Isroil xalqi orasidagi ulushingiz
ham, mulkingiz ham Menman.

Levilarning ulushi

21 Levilarning Uchrashuv chodirida qilgan xizmati evaziga Men ularga Isroil yurtidagi
hamma ushrlarni* xizmat haqi qilib beraman. 22 Bundan buyon Isroil xalqi Uchrashuv
chodiriga yaqin kelmasin. Aks holda, ular qilgan gunohi uchun jazo tortib o‘ladilar.
23 Levilar esa Uchrashuv chodirida xizmat qilib, Chodirga nisbatan qilingan har qanday
ayb ish uchun javobgar bo‘lishadi. Bu avlodlaringiz osha abadiy qonun–qoida bo‘lsin.
Levilar Isroil xalqi orasida yerni ulush qilib olishmaydi. 24 Buning o‘rniga, Men ularga
Isroil xalqining Menga nazr qilgan barcha ushrlarini beraman. Shu sababli Men, levilar
Isroil xalqi orasida ulush olmaydi, deb aytgan edim.”

Levilarning ushri

25 Egamiz yana Musoga dedi:
26 — Levilarga Mening shu gapimni yetkaz: “Egamiz Isroil xalqining ushrini sizlarga
ulush qilib bergan. Sizlar ushrni olganingizda, shu ushrning o‘ndan bir qismini Egamizga
nazr qilib beringlar. 27 Egamiz bu nazringizni don bilan sharobning ilk hosili o‘rnida
qabul qilib oladi. 28 Demak, sizlar Isroil xalqidan oladigan jamiki ushringizning o‘ndan
bir qismini Egamizga nazr qilishingiz shart. O‘sha nazrni ruhoniy Horunga beringlar.
29 Isroil xalqidan qabul qilgan ushrning faqatgina eng sifatlisini Egamizga nazr qilinglar.
30 Isroil xalqi Egamizga don bilan sharob nazrlarini keltirgandan keyin hosilning
qolganini o‘zlariga qoldiradilar. Shu singari, sizlar ham ushrlarning eng sifatlisini
Egamizga bag‘ishlaganingizdan keyin, qolganini o‘zingizga olinglar. 31 Qolganini o‘zingiz
oilangiz bilan har qanday joyda yeb–ichishingiz mumkin. Bular Uchrashuv chodirida
qilgan xizmatingiz uchun to‘lovdir. 32 Egamizga ushrning eng sifatlisini
bag‘ishlaganingizdan keyingina ushrning qolganini yeyishingiz mumkin, shunda sizlar
aybdor hisoblanmaysizlar. Shunday yo‘l tutsangiz, Isroil xalqining muqaddas
hadyalarini bulg‘amagan bo‘lasizlar, o‘zlaringiz nobud bo‘lmaysizlar.”

19–BOB

Malla g‘unajinning kuli

1-2 Muso bilan Horun orqali Isroil xalqiga Egamiz quyidagi qonunni berdi: sizlar bizga
bitta nuqsonsiz malla g‘unajinni olib kelinglar. G‘unajinga bo‘yinturuq urilmagan bo‘lsin.
3 Malla g‘unajinni ruhoniy Elazarga beringlar. So‘ng g‘unajinni qarorgohdan tashqariga
olib chiqib, Elazarning oldida so‘yinglar. 4 Ruhoniy Elazar g‘unajinning qoniga

barmog‘ini botirib, qonni Uchrashuv chodirining oldi tomoniga qarata yetti marta sachratsin. 5 So‘ng jonivor butunligicha — terisi, go‘shti, qoni, ichak–chovoqlari bilan birga Elazarning ko‘zi oldida kuydirilsin. 6 Ruhoniy sadr yog‘ochini, qirmizi ipni va bir tutam issop o‘tini* olib, kuydirilayotgan g‘unajin qurbonligi ustiga tashlasin. 7 So‘ng ruhoniy yuvinib, kiyimlarini ham yuvsin. Shundan keyingina u qarorgohga qaytib kirishi mumkin. Lekin ruhoniy kechgacha harom bo‘ladi. 8 G‘unajinni yoqqan odam ham yuvinib, kiyimlarini yuvsin. U ham kechgacha harom bo‘ladi. 9 Keyin birorta pok odam g‘unajinning kulini yig‘ishtirib, qarorgoh tashqarisidagi toza joyga olib borib qo‘ysin. Isroil xalqi bu kulni poklanish suviga solib ishlatish uchun saqlasin. Bu kul odamlarni gunohlardan poklash marosimida ishlatiladi. 10 G‘unajinning kulini yig‘ishtirgan odam ham kiyimlarini yuvsin, u ham kechgacha harom bo‘ladi. Bu Isroil xalqi uchun ham, ularning orasida yashayotgan musofirlar uchun ham doimiy qonun–qoidadir.

Murdadan bulg‘angan odamning poklanishi

11 Har qanday kishining murdasiga tekkan odam yetti kun harom bo‘ladi. 12 Murdaga tekkan odam poklanish suvi bilan uchinchi va yettinchi kuni o‘zini poklasin. Shunda u pok bo‘ladi. O‘sha odam uchinchi va yettinchi kuni o‘zini poklamasa, harom bo‘lib qolaveradi. 13 Murdaga tegib, o‘zini poklamagan odam Egamizning Muqaddas chodirini bulg‘agan bo‘ladi. Poklanish suvi o‘sha odamning ustiga sepilmagani uchun u haromligicha qoladi. Bunday odam Isroil xalqi orasidan yo‘q qilinsin.

14 Agar odam chodirda vafot etsa, quyidagi qoidaga rioya qilinglar: o‘sha paytda chodirda bo‘lgan va chodirga kirgan hamma odamlar yetti kun harom bo‘lishadi. 15 Chodirdagi qopqog‘i yopilmagan, usti ochiq har qanday idish ham harom bo‘ladi. 16 Agar birorta odam ochiq maydonda o‘ldirilgan yoki o‘z ajali bilan o‘lgan kimsaning jasadiga, marhumning suyagiga yoki qabriga tegsa, u yetti kun harom bo‘ladi. 17 Harom bo‘lgan odam uchun gunohdan poklash maqsadida kuydirilgan malla g‘unajinning kulidan olib idishga solinglar, so‘ng kulning ustiga oqar suvdan quyinglar. 18 Pok odam issopni olib, suvga botirsin–da, suvni chodirga, chodirdagi hamma jihozlarga, chodirdagi odamlarga sepsin. Odamning suyagiga, marhumga, o‘ldirilgan kimsaning jasadiga yoki qabrga tekkan odamning ustiga ham o‘sha suvdan sepsin. 19 Uchinchi va yettinchi kunlari pok odam harom odamga suvdan sepib, yettinchi kuni uni poklasin. Poklangan odam yuvinib, kiyimlarini yuvsin. Ana shunda kechqurunga borib u pok bo‘ladi.

20 Harom bo‘la turib o‘zini poklamagan har qanday odam Isroil jamoasi orasidan yo‘q qilinsin. Chunki poklanish suvi sepilmagan o‘sha odam haromligicha qolib, Egamizning Muqaddas chodirini bulg‘agan bo‘ladi. 21 Bu sizlar uchun doimiy qonun–qoidadir. Poklanish suvini sepgan odam kiyimlarini yuvsin. Poklanish suviga tekkan har qanday odam kechgacha harom bo‘lib qoladi. 22 Harom odam tekkan har qanday narsa haromdir. Harom odamga tekkan odam ham kechgacha harom bo‘ladi.

20–BOB

Kadeshdagi voqealar

1 Birinchi oyda* butun Isroil jamoasi Zin cho‘liga* yetib keldi va Kadeshda* o‘rnashdi. Maryam o‘sha yerda vafot etib, dafn qilindi.

2 U yerda jamoa uchun ichishga suv yo‘q edi. Shu sababli xalq Muso bilan Horunga qarshi yig‘ilib, 3 Musoga ta’na qila boshlashdi:

— Biz ham qarindoshlarimiz bilan birga Egamiz oldida qirilib ketsak bo‘lmasmidi–ya!* 4 Nimaga sizlar Egamizning jamoasini mana shu sahroga olib keldingizlar? Biz mol–holimiz bilan birga qirilib ketishimiz uchunmi?! 5 Nimaga bizni Misrdan olib chiqib, mana shu kasofat joyga olib keldingizlar o‘zi? Bu yerda ekin ekib bo‘lmasa, birorta anjir daraxti, uzum yoki anorlar bo‘lmasa. Bu yerda hatto ichishga suv ham topib bo‘lmaydi–ku!

6 Muso bilan Horun jamoa oldidan ketishdi. Ular Uchrashuv chodiri kiraverishiga borib, muk tushishdi. Shunda Egamiz ulug‘vorligini ularga zohir qildi. 7 Egamiz Musoga dedi:

8 — Tayog‘ingni ol. Akang Horun bilan birgalikda jamoani yig‘inglar. So‘ng jamoaning ko‘zi oldida qoyaga buyruq beringlar. Shunda qoyadan suv chiqadi. Shu yo‘sinda sizlar qoyadan suv chiqarib, jamoaga ham, ularning mollariga ham suv berasizlar.

9 Muso Egamizning aytganini qilib, Egamiz huzuridagi tayoqni oldi. 10 So‘ng Muso bilan Horun jamoani qoya yoniga yig‘ishdi. Muso ularga:

— Quloq solinglar, ey isyonchilar! Mana shu qoyadan biz sizlarga suv chiqarib berishimiz kerakmi? — dedi.

11 Muso qo‘lini ko‘tarib, qoyaga tayog‘i bilan ikki marta urgan edi, qoyadan sharillab suv oqdi. Jamoaning o‘zi ham, ularning mollari ham suv ichdi.

12 Shunda Muso bilan Horunga Egamiz dedi:

— Menga yetarlicha ishonmaganingiz uchun, Isroil xalqiga Mening muqaddasligimni namoyon qilmaganingiz uchun bu jamoani Men ularga beradigan yurtga sizlar boshlab kirmaysiz.

13 Isroil xalqi bu yerda Egamizdan noligani uchun bu joy Mariva* deb nom oldi. O‘sha joyda Egamiz Isroil xalqiga O‘zining muqaddasligini namoyon qildi.

Isroil xalqi o‘tib ketishiga Edom shohi ijozat bermaydi

14 Muso Kadeshdan Edom* shohiga choparlar orqali quyidagi mazmunda bir xabar jo‘natdi:

> “Biz, Isroil xalqi, sizning jigaringizmiz*. Bizning boshimizga tushgan kulfatlardan sizlar xabardorsiz. 15 Bizning otalarimiz Misrga ko‘chib borgan edilar. Biz Misrda uzoq vaqt yashadik. Misrliklar otalarimizga ham, bizga ham zulm o‘tkazishdi. 16 Keyin biz Egamizga yolvorib iltijo qilgan edik, U bizning iltijoimizni eshitdi. U farishtasini jo‘natib, bizni Misrdan olib chiqdi. Mana endi biz Kadeshda — yurtingiz chegarasidagi shaharda turibmiz. 17 Bizga yurtingiz orqali o‘tib ketishga ijozat bersangiz. Biz ekinzorlaringiz va uzumzorlaringizga kirmaymiz, quduqlaringiz suvidan ichmaymiz. Sizning yurtingizdan o‘tib ketgunimizcha, faqat Shoh yo‘lidan* yuramiz, yo‘ldan o‘ngga ham, chapga ham chiqmaymiz.”

18 Lekin Edom shohi Musoga:

> “Mening yurtimdan o‘ta ko‘rma, aks holda, ustingga qilich yalang‘ochlab bostirib boraman”, deb javob yubordi.

19 Isroil xalqi esa Edom shohidan iltimos qildi:

“Biz katta yo‘ldan ketamiz. Agar suvingizdan o‘zimiz yoki mollarimiz ichsa, haqini to‘laymiz. Biz bor–yo‘g‘i yurtingizdan o‘tib ketmoqchimiz, xolos.”

20 Lekin Edom shohi:

“O‘tmaysizlar!” deb turib oldi.

U Isroil xalqiga qarshi tish–tirnog‘igacha qurollangan katta lashkarini boshlab chiqdi. 21 Xullas, Edom shohi Isroil xalqiga o‘z yurtidan o‘tib ketishga ijozat bermadi. Isroil xalqi Edom yurtini chetlab o‘tib ketdi.

Horunning o‘limi

22 Butun Isroil jamoasi Kadeshdan jo‘nab, Xo‘r tog‘iga yetib keldi. 23 Egamiz Muso bilan Horunga Xo‘r tog‘ida — Edom yurti chegarasida shunday dedi:
24 — Horunning bu olamdan ko‘z yumadigan vaqti keldi. Men Isroil xalqiga beradigan yurtga u kirmaydi. Chunki sizlar ikkovingiz Mariva suvlari bo‘yida Mening amrimga qarshi chiqdingizlar. 25 Endi sen Horun bilan uning o‘g‘li Elazarni Xo‘r tog‘iga boshlab chiq. 26 Horunning ustidan ruhoniylik kiyimlarini yechib olib, o‘g‘li Elazarga kiygiz. Horun o‘sha yerda vafot etadi.
27 Muso Egamiz amr berganday qildi. Uchalovi Xo‘r tog‘iga chiqishdi, butun jamoa buni ko‘rib turdi. 28 Muso Horunning ustidan kiyimlarini yechib olib, uning o‘g‘li Elazarga kiygizdi. Horun o‘sha yerda — tog‘ tepasida vafot etdi. Shundan so‘ng Muso bilan Elazar tog‘dan qaytib tushishdi. 29 Butun jamoa Horunning vafot etganini bildi. Jamiki Isroil xalqi Horun uchun o‘ttiz kun aza tutdi.

21–BOB

Kan’on xalqi ustidan erishilgan g‘alaba

1 Nagav cho‘lida* istiqomat qilayotgan Arod shohi: “Isroil xalqi Otorim yo‘lidan kelayotgan ekan” degan xabarni eshitib, jangga otlandi. Kan’on naslidan bo‘lgan bu shoh Isroil xalqi bilan jang qilib, ulardan bir nechtasini asir oldi.
2 Bu voqeadan so‘ng Isroil xalqi Egamizga qasam ichib, shunday dedi:
— Ey Egamiz! Agar Sen shu xalqni bizning qo‘limizga bersang, ularning hamma shaharlarini butunlay vayron qilamiz.
3 Egamiz Isroil xalqining iltijosini eshitib, Kan’on xalqini ularning qo‘liga berdi. Ular Kan’onliklarni qirib tashlab, shaharlarini butunlay vayron qilishdi. Shuning uchun bu joyga Xo‘rmax* deb nom berildi.

Bronzadan yasalgan ilon

4 Isroil xalqi Xo‘r tog‘ini tark etib, Edom yerlarini chetlab o‘tish uchun Qizil dengizga* boradigan yo‘ldan ketdi. Lekin xalq yo‘lda ketayotib, yana sabrsizlik qildi. 5 Ular ming‘irlab Xudodan va Musodan noliy boshladilar:
— Nimaga bizni Misrdan olib chiqdingizlar? Sahroda o‘lib ketishimiz uchunmi?! Bu yerda na non bor, na suv. Mana bu bo‘lmag‘ur manna me’damizga tegib ketdi–ku!
6 Shu voqeadan keyin Egamiz xalq orasiga zaharli ilonlarni jo‘natdi, ilonlar Isroil xalqining ko‘pchiligini chaqib o‘ldirdi. 7 Oxiri xalq Musoning oldiga kelib:
— Biz Egamizga ham, senga ham qarshi gapirib gunoh qildik, — dedi, — Egamizga

iltijo qil, U bizning oramizdan ilonlarni daf qilsin.

Muso xalq uchun Egamizga iltijo qildi. 8 Shunda Egamiz Musoga dedi:

— Ilon yasab, uni xodaga mahkamlab qo‘y. Ilon chaqqan odam o‘shanga qarab tirik qoladi.

9 Muso bronzadan ilonni yasab*, uni xodaga mahkamlab qo‘ydi. Ilon chaqqan odam bronzadan yasalgan ilonga qaraganda, o‘lmasdan tirik qolardi.

Xo‘r tog‘idan — Mo‘ab vodiysiga

10 Isroil xalqi safarini davom ettirib, Obo‘tda qarorgoh qurdi. 11 So‘ng ular Obo‘tdan ham ketib Ivay–Aborimga qo‘nishdi. Ivay–Aborim Mo‘ab yurtining sharqidagi sahroda joylashgan edi. 12 U yerdan ham ketib, Zarad soyligida to‘xtashdi. 13 So‘ng yana yo‘lga chiqib, Arnon soyligining shimoliy qirg‘og‘iga — Amor yurtining chegarasiga tutash bo‘lgan sahroga joylashishdi. Arnon soyligi* Amor va Mo‘ab yurtlarining o‘rtasida chegara edi. 14 Shu sababdan “Egamizning jangnomasi” kitobida* Sufa yerlaridagi Vohib shahri va soyliklar tilga olinadi. Shuningdek, Arnon soyligi 15 va Mo‘ab chegarasidagi Or shahrigacha cho‘zilgan daryoning irmoqlari eslanadi.

16 Isroil xalqi u yerdan chiqib, Ber* degan joydagi quduqqa yo‘l oldi. O‘sha quduq yonida Egamiz Musoga: “Xalqni yig‘, Men ularga suv beraman”, dedi. 17 O‘shanda Isroil xalqi shu qo‘shiqni kuyladi:

“To‘lib–tosh, ey quduq,
Quduq haqida kuylang!
18 Yo‘lboshchilar qazigandi bu quduqni,
Asilzodalar kovlagandi bu quduqni
Saltanat hassalari* ila,
Saltanat tamg‘alari ila.”

So‘ng ular sahrodan Mattono shahriga yo‘l oldilar. 19 Mattonodan esa Nahaliyolga, Nahaliyoldan Bomo‘tga, 20 Bomo‘tdan Mo‘ab yerlaridagi vodiyga borishdi. Fisgax tog‘ tizmasi* yonidagi bu vodiydan sahroning manzarasi ochilardi.

Shoh Sixo‘n va shoh O‘g ustidan qozonilgan g‘alaba

21 Keyin Isroil xalqi Amor xalqining shohi Sixo‘nga shu gapni aytish uchun choparlar jo‘natdi:

22 “Bizga yurtingiz orqali o‘tib ketishga ijozat bersangiz. Biz ekinzorlaringizga, uzumzorlaringizga kirmaymiz, quduqlaringiz suvidan ichmaymiz. Sizning yurtingizdan o‘tib ketguncha, faqat Shoh yo‘lidan* yuramiz.”

23 Lekin Sixo‘n Isroil xalqiga o‘z yurtidan o‘tib ketishga ijozat bermadi. U jamiki lashkarini yig‘ib, sahrodagi Yaxaz shahri yonida Isroil xalqiga hujum qildi. 24 Jangda Isroil xalqi Sixo‘nni mag‘lub etdi va Arnon soyligidan tortib, Yavoq daryosigacha* bo‘lgan hamma yerlarini egallab oldi. Lekin Ommon xalqining chegarasidan u yog‘iga o‘tmadi, chunki Ommon yurtining chegarasi mustahkam edi. 25 Isroil xalqi Amor xalqining hamma shaharlarini, xususan, Xashbon shahri* va uning atrofidagi qishloqlarni bosib olib, o‘sha shaharlarda o‘rnashib oldi. 26 Xashbon shahri Amor shohligining poytaxti edi. Amor shohi Sixo‘n Mo‘abning oldingi shohi bilan jang qilib,

uning Arnon soyligigacha bo‘lgan hamma yerlarini bosib olgan edi. 27 Shuning uchun dostonchilar aytishardi:

“Xashbonga kelinglar, qayta quringlar uni,
Mustahkam etinglar Sixo‘n shahrini.
28 Olov chiqib ketdi–ku Xashbon shahridan,
Alanga chiqdi shoh Sixo‘nning shahridan.
Yong‘in yakson qildi Mo‘abdagi Or shahrini,
Yo‘q qildi Arnon qirlari shohlarini.
29 Holingga voy, ey Mo‘ab xalqi!
Tamom bo‘ldingiz, Xamo‘sh* ixlosmandlari!
Xamo‘sh qochqin qildi o‘g‘illaringizni,
Amor xalqining shohi Sixo‘nga asir qildi
Sizning qiz–juvonlaringizni.
30 Qirib tashladik biz ularni,
Xashbondan Dibonga qadar yo‘q qildik hammasini.
No‘faxdan Midavoga qadar xonavayron qildik ularni.”

31 Shunday qilib, Isroil xalqi Amor xalqining yurtida o‘rnashib oldi.
32 Muso Yazir shahriga ayg‘oqchilar jo‘natdi. Isroil xalqi Yazir va uning atrofidagi qishloqlarni bosib olib, u yerda istiqomat qilayotgan Amor xalqini haydab chiqardi.
33 So‘ng ular Bashan o‘lkasiga* yo‘l olishdi. Bashan shohi O‘g jamiki lashkarini boshlab, Edrey shahri yaqinida Isroil xalqi bilan jang qilgani chiqdi. 34 Shunda Egamiz Musoga dedi:
— O‘gdan qo‘rqma. Men uning o‘zini, lashkarini va butun yurtini sening qo‘lingga berganman. Sen O‘gning boshiga Xashbonda hukmronlik qilgan Amor xalqining shohi Sixo‘nning kunini solasan.
35 Isroil xalqi O‘gni, uning o‘g‘illarini, butun xalqini bitta qoldirmay qirib tashladi. So‘ng ular O‘gning yurtini qo‘lga kiritishdi.

22–BOB

Mo‘ab shohi Balomni chaqirtiradi

1 Isroil xalqi yo‘lda davom etdi. Mo‘ab tekisligiga yetib kelib, Yerixo shahrining ro‘parasida — Iordan daryosining sharqida qarorgoh qurdi. 2 Isroil xalqi Amor xalqini qanday ahvolga solgani haqidagi xabar Mo‘ab shohi — Zippur o‘g‘li Boloqqa ham yetib borgan edi. 3 Isroil xalqi ko‘pligidan butun Mo‘ab xalqi qattiq vahimaga tushgandi.
4 Mo‘ab oqsoqollari Midiyon oqsoqollariga:
— Ho‘kiz daladagi o‘tlarni yeb bitirgani singari, anavi olomon ham tevarak–atrofimizdagi hamma narsani yeb bitiradi–ku! — dedi. O‘sha davrda Mo‘abda hukmronlik qilayotgan Zippur o‘g‘li Boloq, 5 Bavo‘r o‘g‘li Balomni chaqiray deb, uning oldiga choparlar jo‘natdi. Balom o‘z ona yurti, Furot daryosi qirg‘og‘idagi Pato‘r shahrida istiqomat qilar edi. Boloq Balomga shunday deb da’vat qildi:

“Misrdan chiqqan bir xalq yer yuzini bosib ketdi. Endi esa ular shundoqqina mening biqinimda o‘rnashib olishdi. 6 Men ularga bas kela olmayman. Sen kelib,

o‘sha xalqni men uchun la’natla. Balki shunda men Isroil xalqini mag‘lub qilib,
yurtimdan quvib chiqara olarman. Shuni bilamanki, sen kimni duo qilsang, o‘sha
duo oladi, kimni la’natlasang, o‘sha la’nati bo‘ladi.”

7 Shunday qilib, Mo‘ab va Midiyon oqsoqollari Balomning oldiga borar ekanlar, unga
to‘lanadigan la’nat haqini ham o‘zlari bilan olib ketdilar. Ular Balomning huzuriga
kelishgach, unga shoh Boloqning gaplarini aytishdi.
8 — Shu yerda tunab qolinglar, — dedi Balom oqsoqollarga. — Egamizning bergan
javobini men ertaga sizlarga aytaman.
Mo‘ab oqsoqollari Balomnikida qolishdi. 9 Xudo Balomning oldiga kelib, undan:
— Uyingdagi odamlar kim? — deb so‘radi.
10 Balom Xudoga shunday javob berdi:
— Mo‘ab shohi Zippur o‘g‘li Boloq menga quyidagicha xabar yuboribdi: 11 “Misrdan
chiqqan bir xalq yer yuzini bosib ketdi, bu yoqqa kel, o‘sha xalqni men uchun la’natla,
balki o‘shandagina men u xalqqa zarba berib, o‘z yurtimdan quvib chiqara olarman.”
12 — Ular bilan borma! — dedi Xudo Balomga. — U xalqni zinhor la’natlay ko‘rma,
chunki u xalqqa Men baraka berganman.
13 Balom ertalab turib:
— Yurtingizga qaytib ketaveringlar, Egamiz sizlar bilan ketishimga ijozat bermadi,
— dedi Boloqning a’yonlariga.
14 Mo‘ab a’yonlari Boloq oldiga qaytib borib: “Balom bizlar bilan kelishga rozi
bo‘lmadi”, deyishdi.
15 Boloq esa oldingidan ham ko‘proq va obro‘liroq a’yonlarini yubordi. 16 Ular
Balomning oldiga kelib, shunday deyishdi:

“Zippur o‘g‘li Boloq shunday demoqda: Balom qanday qilib bo‘lsa ham
huzurimga kelsin, 17 men uni yaxshilab taqdirlayman, nima istasa muhayyo
qilaman. Faqat kelib, o‘sha xalqni men uchun la’natlasin.”

18 Balom esa Boloqning a’yonlariga shunday javob berdi:
— Boloq menga saroyidagi hamma oltinu kumushini bersa ham, men Egam
Xudoning amridan chetga chiqa olmayman. Hatto kichik masalada ham o‘z ixtiyorim
bilan ish tuta olmayman. 19 Yaxshisi, sizlar, oldingilar kabi, bu kecha shu yerda tunab
qolinglar. Egamiz yana nima der ekan, men bilay–chi.
20 Shu kecha Xudo Balom oldiga kelib, unga dedi:
— Agar bu odamlar seni o‘zlari bilan olib ketgani kelgan bo‘lsalar, otlangin–u, ular
bilan birga ket. Lekin sen faqat Mening aytganimni qilasan.

Balom va uning eshagi

21 Balom ertalab turdi. Eshagini egarlab, Mo‘ab a’yonlari bilan birga jo‘nadi. 22 Balom
ketganda, Xudo qattiq g‘azablandi. Egamizning farishtasi Balomga qarshilik ko‘rsatish
uchun uning yo‘lini to‘sib oldi. Balom eshagini minib, yonidagi ikkita xizmatkori bilan
yo‘lda ketayotgan edi.
23 Birdaniga eshak yo‘l ustida qilich yalang‘ochlab turgan Egamizning farishtasini
ko‘rib qoldi–da, yo‘lidan burilib, dala ichiga kirib ketdi. Balom esa eshakni yo‘lga solish
uchun savalay boshladi. 24 Egamizning farishtasi endi uzumzorlar orasidan o‘tgan tor

so‘qmoqda turib oldi. Yo‘lning ikkala tomoni ham devor edi. 25 Eshak Egamizning
farishtasini ko‘rdi–yu, devorga qapishib, Balomning oyog‘ini qisib qo‘ydi. Balom yana
eshakni ura boshladi.
26 Egamizning farishtasi yana oldinga o‘tib, tor joyga turib oldi. Endi eshak o‘ngga
ham, chapga ham burilib keta olmas edi. 27 Eshak Egamizning farishtasini ko‘rgach, yotib
oldi. Balom esa bundan qattiq g‘azablanib, eshakni tayog‘i bilan savalay boshladi. 28 Shu
payt Egamizning qudrati bilan eshak tilga kirib:
— Men senga nima qildim? Nimaga sen meni uch marta urding? — dedi Balomga.
29 — Sen meni ahmoq qilding! — deb do‘q qildi Balom. — Agar qo‘limda qilichim
bo‘lganda edi, seni hoziroq chopib tashlagan bo‘lar edim.
30 — Axir, sen meni ilgaridan minib yurasan–ku! Men sening o‘sha–o‘sha
eshagingman. Oldin ham shunaqa qiliq qilganmidim?! — dedi eshak.
— Yo‘q, — dedi Balom. 31 Shu on Egamiz Balomning ko‘zini ochib yuborgan edi, u
yo‘lda turgan Egamizning farishtasini ko‘rib qoldi. Farishta qo‘lida qilichini
yalang‘ochlab turardi. Balom yerga muk tushdi.
32 Egamizning farishtasi Balomga dedi:
— Nimaga sen eshagingni uch marta urding? Tutgan yo‘ling Mening nazarimda egri
bo‘lgani uchun, Men senga qarshilik ko‘rsatish maqsadida keldim. 33 Eshaging esa meni
ko‘rdi–yu, uch marta o‘zini chetga olib qochdi. Agar u mening oldimdan burilib
ketmaganda edi, Men seni o‘ldirib, eshagingni tirik qoldirgan bo‘lardim.
34 — Gunoh qildim, — dedi Balom Egamizning farishtasiga. — Sen yo‘limni to‘sib
turganingni bilmabman. Agar men sening nazaringda noma’qul ish qilayotgan bo‘lsam,
uyimga qaytib ketaman.
35 — Shu odamlar bilan birga boraver. Lekin sen faqat Men aytgan gaplarimni
gapirasan, — dedi Egamizning farishtasi.
Shunday qilib, Balom Boloqning a’yonlari bilan birga ketaverdi.

Boloq Balomni kutib oladi

36 Boloq Balomning kelayotganini eshitdi–yu, uni kutib olish uchun Ir shahriga* yetib
keldi. Bu shahar Arnon soyligi bo‘yida, Mo‘ab yurtining chegarasida joylashgan edi.
37 Boloq Balomga dedi:
— Men sening oldingga bundan oldin ham odamlarimni yuborgan edim–ku! Nimaga
o‘shanda kela qolmading? Yo meni, yetarli darajada taqdirlay olmaydi, deb o‘yladingmi?
38 — Mana endi keldim oldingga, — dedi Balom. — Xudo og‘zimga solgan so‘zlardan
bo‘lak men nima ham ayta olar edim?!
39 Balom Boloq bilan birga ketdi. Ular Xirat–Xuzo‘t shahriga kelishdi. 40 Boloq mol va
qo‘ylar so‘yib, qurbonlik qildi. Balomga va unga hamroh bo‘lib kelgan shoh a’yonlariga
ham qurbonlikdan ulashdi.

Balomning birinchi bashorati

41 Boloq keyingi kuni ertalab Balomni Bomo‘t–Baal* tepaligiga olib chiqdi. Balom u
yerdan turib Isroil xalqining bir qismini ko‘rdi.

23–BOB

1 Balom Boloqqa dedi:
— Shu yerda men uchun yettita qurbongoh qurib, yettita buqa va yettita qo‘chqorni

tayyorlab qo‘y.
2 Boloq Balom aytganday qildi. So‘ng ikkovlari har bir qurbongohda bittadan buqa va
bittadan qo‘chqorni qurbonlik qilishdi.
3 Keyin Balom Boloqqa dedi:
— Sen kuydirilgan qurbonliklaring yonida qol, men esa borib ko‘ray, Egamiz menga
peshvoz chiqarmikin. U menga nimani ayon qilsa, shuni senga aytaman.
Balom tepalikka chiqdi. 4 Xudo Balom bilan uchrashgach, Balom Xudoga dedi:
— Men yettita qurbongoh qurdirib, har bir qurbongohda bittadan buqa va bittadan
qo‘chqorni qurbonlik qildim.
5 Egamiz Balomning og‘ziga so‘z solib:
— Boloqning oldiga qaytib bor, unga Men aytgan so‘zlarimni yetkaz, — dedi.
6 Balom Boloqning oldiga qaytib keldi. Boloq hamma Mo‘ab a’yonlari bilan birga
kuydirilgan qurbonliklarning yonida turgan edi. 7 Balom quyidagicha bashorat qildi:

“Meni Mo‘ab shohi Boloq sharqiy tog‘lardan,
Oramdan* olib kelib, dedi:
«Kel, men uchun Yoqub naslini la’natla,
Kel, Isroil xalqini sen qarg‘a!»
8 Xudo la’natlamaganni men qanday la’natlayin?!
Egamiz qarg‘amaganni qanday qilib qarg‘ayin?!
9 Qoyaning tepasida turib men ularni ko‘ryapman,
Tepalikdan ularga qarab turibman,
Yashaydi bu xalq hammadan alohida.
O‘zgachadir ular xalqlar orasida.
10 Qumday son–sanoqsiz bo‘lgan Yoqub naslini kim sanab chiqar?!
Isroilning choragini kim hisoblab chiqa olar?!
Men ham solih inson bo‘lib olamdan o‘tay,
Iloyim, bo‘lsin ularnikiday oxiratim baxayr.”

11 — Sen nima qilyapsan o‘zi? — dedi Boloq Balomga. — Men seni, dushmanlarimni
la’natlaydi deb, chaqirtirib kelgan edim, sen esa ularni duo qilyapsan–ku!
12 — Men faqat Egamiz og‘zimga solgan so‘zni aytishim kerak–ku! — deb javob berdi
Balom.

Balomning ikkinchi bashorati

13 — Kel, men bilan birga boshqa joyga bora qol, — dedi Balomga Boloq. — Sen o‘sha
joydan Isroil xalqining bir qismini ko‘rasan. O‘sha joydan turib Isroilni men uchun
la’natla.
14 Boloq Balomni Fisgax tog‘ tizmasi* tepasidagi Zo‘fim degan yassi joyga boshlab
keldi. U yerda ham yettita qurbongoh qurib, har bir qurbongoh ustida bittadan buqa va
bittadan qo‘chqorni qurbonlik qildi. 15 So‘ng Balom Boloqqa dedi:
— Sen shu yerda — kuydirilgan qurbonliklaring yonida qol, men esa hov anavi yerga
borib, Egamiz bilan uchrashib kelaman.
16 Egamiz Balomga peshvoz chiqib, uning og‘ziga so‘z soldi. So‘ng:
— Boloqning oldiga qaytib bor, unga Men aytgan so‘zlarimni ayt, — dedi.
17 Balom Boloqning oldiga qaytib keldi. Boloq Mo‘ab a’yonlari bilan birga kuydirilgan

qurbonliklarning yonida turgan edi.

— Egang nima dedi? — deb so‘radi undan Boloq. 18 Balom quyidagicha bashorat qildi:

“Menga qara, ey Zippur o‘g‘li Boloq,
Gaplarimni eshit, yaxshilab solgin quloq.
19 Xudo inson emaski, U yolg‘on gapirsa,
U odam emaski, fikrini o‘zgartirsa.
U doim va’dasi ustidan chiqar!
O‘z aytganlarin albatta bajarar!
20 Xudo menga berdi duo so‘zlarini,
O‘zgartira olmayman men Xudoning barakasini.
21 Men Isroilning kelajagini ko‘ryapman,
Yoqub nasli boshiga kulfat tushmas,
Bu xalq biror ko‘rgilik ko‘rmas.
Egasi Xudo ularning orasida,
Shoh, deya olqishlar Uni hamma.
22 Yovvoyi buqaning kuchi bilan
Xudo ularni Misrdan olib chiqqan.
23 Yoqub nasliga hech qanday sehr–jodu ta’sir qilmaydi,
Isroilga qarshi folbinlik aslo o‘tmaydi*.
Odamlar Yoqub nasli haqida, Isroil to‘g‘risida:
«Qaranglar, Xudo nimalarni qilgan», deb aytishar.
24 Isroil xalqi sher kabi qo‘zg‘alar,
Arslonday sakrab turar,
O‘ljasini yeb bitirmaguncha,
Qurbonlarning qoniga to‘ymaguncha yotmas.”

25 Shundan so‘ng Boloq Balomga aytdi:

— Isroil xalqini la’natlamagin ham, duo ham qilmagin!

Balomning uchinchi bashorati

26 Lekin Balom Boloqqa:

— Men sizga, faqat Egamizning aytganini qilaman, deb aytmaganmidim?! — dedi.

27 — Yur, endi men seni boshqa joyga olib boraman, — dedi Boloq. — Balki shunda Xudo mamnun bo‘lib, o‘sha yerdan turib men uchun Isroilni la’natlashingga yo‘l qo‘yar.

28 Boloq Balomni Piyor tog‘ining* tepasiga boshlab olib chiqdi. Bu tog‘dan sahroning manzarasi ko‘rinib turardi.

29 Balom Boloqqa dedi:

— Shu yerda menga yettita qurbongoh qurib, yettita buqa bilan yettita qo‘chqorni tayyorlab qo‘y.

30 Boloq Balom aytganday qilib, har bir qurbongohda bittadan buqa va bittadan qo‘chqorni qurbonlik qildi.

24–BOB

1 Balom Isroilni duo qilayotgani Egamizga ma’qul kelganini ko‘rib, bu safar fol
ochgani bormadi. U sahro tomon nazar tashlab, 2 u yerda qabila–qabila bo‘lib qarorgoh
qurgan Isroil xalqini ko‘rdi. Shunda Xudoning Ruhi Balomni qamrab oldi, 3 Balom
shunday bashorat qildi:

“Bavo‘r o‘g‘li Balom gapiryapti,
Ko‘zi ochiq inson so‘zlayapti.
4 Xudoning kalomini eshitgan,
Qodir Xudodan kelgan vahiyni ko‘rgan,
Hushidan ayrilgan, lekin ko‘zlari katta ochiq odam aytyapti.
5 Ey Yoqub nasli! Chodirlaringiz qanday ajoyib!
Ey Isroil xalqi! Makoningiz naqadar go‘zal!
6 Chodiru makonlaringiz palmazor* singari bepoyon,
Bamisoli daryo bo‘yidagi bog‘–rog‘lardir,
Egamiz o‘tqazgan aloega o‘xshar,
Suv bo‘yidagi sadr daraxti kabidir.
7 Ularning chelaklari suv bilan to‘lib–toshar,
Ekkan urug‘lari miriqib suvga to‘yar.
Isroil shohi O‘gaxdan* ustun bo‘lar,
Isroil shohligi g‘oyat yuksalar.
8 Yovvoyi buqaning kuchi bilan
Xudo Misrdan olib chiqqan ularni.
Isroil xalqi yamlamay yutar g‘animlarini,
Ularning suyaklarini maydalab tashlar,
O‘qlar otib, ularni yakson etar.
9 Ana, u urg‘ochi sherday egildi–da, yotdi.
Uni turg‘izishga kim jur’at etar?!
Seni duo qilganlar baraka topar,
Seni la’natlaganlar la’nati bo‘lar!”

10 Boloq Balomdan qattiq g‘azablanganidan kaftini kaftiga urib:
— Men seni, g‘animlarimni la’natlagin deb, chaqirtirgan edim. Sen esa ularni uch
marta duo qilding! — deb do‘q urdi. 11 — Yo‘qol! Uyingga jo‘na! Men seni
mukofotlamoqchi edim, lekin Egang seni mukofotdan mahrum qildi.
12 Shunda Balom Boloqqa dedi:
— Mening oldimga jo‘natgan choparlaringga aytmaganmidim: 13 “Boloq menga
saroyidagi hamma oltinu kumushini bersa ham, men Egamizning aytganidan chetga
chiqa olmayman. O‘z ixtiyorim bilan biror yaxshi yoki yomon ish qilolmayman. Egamiz
menga nima desa, shuni aytaman”, deb?! 14 Endi men o‘z xalqim oldiga qaytib ketaman.
Lekin ketishimdan oldin, Isroil xalqi kelajakda xalqing boshiga qanday kunlarni solishini
senga aytib qo‘yay.

Balomning so‘nggi bashoratlari

15 Shundan so‘ng Balom quyidagicha bashorat qildi:

“Bavoʻr oʻgʻli Balom gapiryapti,
Koʻzi ochiq inson soʻzlayapti.
16 Xudoning kalomini eshitgan,
Xudoyi Taolodan ilmu ma’rifat olgan,
Qodir Xudoning vahiyini koʻrgan,
Hushidan ayrilgan, lekin koʻzlari katta ochiq odam aytyapti.
17 Uni koʻryapman–u, lekin shu topda yoʻq,
Unga qarayapman–u, lekin u yaqin emas.
Bir yulduz chiqar Yoqub naslidan,
Saltanat hassasi* Isroil xalqidan.
Vayron qilar u Moʻab chegaralarini*,
Yakson etar Shet xalqining* yerlarini*.
18 Edom oʻljaga aylanar,
Ha, Seir* gʻanimlarning mulki boʻlar,
Isroil xalqi esa zafarni quchar.
19 Yoqub naslidan hukmdor chiqar,
Ir* xalqini tamom qirib tashlar.”

20 Soʻng Balom Omolek xalqini* koʻrib, ular haqida shunday bashorat qildi:

“Xalqlarning sardoridir Omoleklar,
Lekin oxiri abadiy halokatga yoʻliqar ular.”

21 Keyin u Xayin xalqini koʻrib, ular haqida quyidagicha bashorat qildi:

“Mustahkamdir sizning boshpanangiz,
Togʻ choʻqqisida joylashgan sizning iningiz.
22 Oshur xalqi* sizni asir qilib olib ketajak,
Shunda Xayin xalqi qirilib yoʻq boʻlajak.”

23 Balom yana bashoratini davom ettirdi:

“Evoh! Xudo shu ishlarni amalga oshirgach, kim tirik qolar?!
24 Kiprdan* suzib kelar kemalar,
Oshur va Ibir xalqlarini taslim etishar.
Abadiy halokatga uchraydi ular.”

25 Shundan keyin Balom yoʻlga chiqib, uyiga joʻnadi. Boloq ham oʻz yoʻliga ketdi.

25–BOB

Isroil xalqi Piyor togʻidagi Baalga sajda qiladi

1 Isroil xalqi Shitimda* oʻrnashganda, Isroil erkaklari Moʻab ayollari bilan zino qila boshlashdi. 2 Moʻab ayollari ularni oʻz xudolariga bagʻishlangan qurbonlik ziyofatlariga taklif etishdi. Isroil xalqi ularning qurbonligidan tanovul qilib, xudolariga ham sajda etdi. 3 Isroil xalqi Piyor togʻidagi Baalga qattiq bogʻlanib qolgani uchun, Egamiz ulardan

g‘azablandi. 4 U Musoga shunday dedi:

— Bu xalqning boshliqlarini ushla, ularni kuppa–kunduzi Men, Egangizning huzurida qatl qil, jasadlarini esa tik o‘rnatilgan xodaning uchiga qoqtir. Shunda Men Isroil xalqidan qahr–g‘azabimni qaytaraman.

5 Muso Isroil hakamlariga*:

— Piyordagi Baalga sajda qilgan har bir odamingizni o‘ldiringlar, — deb buyruq berdi.

6 Shu payt Isroil xalqidan bittasi Musoning va butun Isroil jamoasining ko‘zi oldida qarorgohga Midiyonlik* bir ayolni boshlab kelib qoldi. Jamoa Uchrashuv chodiriga kiraverishda yig‘lab turgan edi. 7 Ruhoniy Horunning nabirasi — Elazar o‘g‘li Finxaz buni ko‘rdi–yu, o‘rnidan turib, jamoa orasidan chiqib ketdi. U nayzasini olib, 8 Isroil xalqidan bo‘lgan o‘sha odamning orqasidan chodirga kirdi–da, nayzasi bilan ikkovini ham o‘ldirdi. Finxazning sanchgan nayzasi o‘sha odamning badanini teshib o‘tib, ayolning qorniga kirgan edi. Shundan keyingina Isroil xalqi orasidagi o‘lat to‘xtadi. 9 Lekin o‘latdan 24.000 odam o‘lib bo‘lgan edi.

10 Shunda Egamiz Musoga:

11 — Ruhoniy Horunning nabirasi — Elazar o‘g‘li Finxaz Mening qahr–g‘azabimni Isroil xalqidan qaytardi, — dedi. — Isroil xalqi orasida u Menga jon kuydirgani uchun, Men g‘azab ustida ularga qirg‘in keltirmadim. 12 Sen unga ayt: Men Finxaz bilan alohida tinchlik ahdimni tuzaman. 13 Bu ahdga muvofiq, Finxazning o‘zi va uning avlodi to abad ruhoniy bo‘lishadi, chunki u o‘z Xudosiga — Menga jon kuydirib, qilgan ishi bilan Isroil xalqidan Mening g‘azabimni qaytardi.

14 Midiyonlik ayol bilan birga o‘ldirilgan Isroil odamining ismi Zimri bo‘lib, Shimo‘n qabilasining urug‘boshisi Soluning o‘g‘li edi. 15 O‘ldirilgan ayolning ismi esa Xozbi edi, u Midiyonliklarning urug‘boshisi Zurning qizi edi.

16 Egamiz Musoga:

17 — Midiyon xalqini dushman deb bilinglar, ularni qirib tashlanglar! — dedi. 18 — Chunki ular sizlarga dushmanlik qilib, Piyordagi voqea orqali sizlarni yo‘ldan ozdirishdi. Bundan tashqari, Piyorda o‘lat hukmronlik qilgan kuni o‘lgan Midiyonlik yo‘lboshchining qizi Xozbi orqali sizlarni aldashdi.

26–BOB

Isroil xalqi ikkinchi marta ro‘yxatga olinadi

1 O‘latdan so‘ng Egamiz Muso bilan ruhoniy Horun o‘g‘li Elazarga dedi: 2 “Jamiki Isroil xalqining urushga yaroqli bo‘lgan yigirma va undan yuqori yoshdagi hamma erkaklarini xonadoni bo‘yicha sanab chiqinglar.”

3 Bu paytda Isroil xalqi Mo‘ab tekisligida, Yerixo shahri ro‘parasidagi Iordan daryosi bo‘yida qarorgoh qurgan edi. Muso bilan ruhoniy Elazar xalqqa: 4 “Egamiz bizga amr qilganday yigirma yoshdan yuqori bo‘lgan erkaklarini sanab chiqinglar”, deb aytishdi. Misr yurtidan chiqqan jamiki Isroil xalqining ro‘yxati quyidagicha edi:

5 Ruben Isroilning* to‘ng‘ichidir. Ruben o‘g‘illaridan kelib chiqqan urug‘lar
mana shulardir: Xano‘xdan Xano‘x urug‘i, Palluvdan Palluv urug‘i, 6 Xazrondan
Xazron urug‘i, Karmidan Karmi urug‘i kelib chiqqan. 7 Ruben urug‘lari mana

shulardan iboratdir. Ular sanalganda, 43.730 kishi chiqdi.
8 Palluvning Eliyob degan o‘g‘li bor edi, 9 Eliyobning esa Namuvol, Datan va
Aburam degan o‘g‘illari bor edi. Datan va Aburam Isroil yo‘lboshchilari edi.
Ko‘raxning izdoshlari Egamizga qarshi isyon ko‘tarishganda*, Datan va Aburam
ham ularga qo‘shilishib, Muso bilan Horunga qarshi bosh ko‘targan edilar. 10 Yer
yorilib, Ko‘rax bilan birga ularni ham yutib yuborgandi. O‘sha kuni alanga
Ko‘raxning 250 nafar izdoshini kuydirib yo‘q qilgandi. Mana shu voqea xalqqa
ogohlantirish edi. 11 Lekin Ko‘raxning o‘g‘illari o‘sha kuni omon qoldi.

12 Shimo‘n o‘g‘illaridan kelib chiqqan urug‘lar shulardir: Namuvoldan
Namuvol urug‘i, Yomindan Yomin urug‘i, Yoxindan Yoxin urug‘i, 13 Zeraxdan
Zerax urug‘i, Shovuldan Shovul urug‘i kelib chiqqan. 14 Shimo‘n urug‘lari mana
shulardan iboratdir. Ular sanalganda, 22.200 kishi chiqdi.

15 Gad o‘g‘illaridan kelib chiqqan urug‘lar shulardir: Zafo‘ndan Zafo‘n urug‘i,
Xagidan Xagi urug‘i, Shunodan Shuno urug‘i, 16 Oznaxdan Oznax urug‘i, Yeridan
Yeri urug‘i, 17 Aro‘ddan Aro‘d urug‘i, Eralidan Erali urug‘i kelib chiqqan. 18 Gad
urug‘lari mana shulardan iboratdir. Ular sanalganda, 40.500 kishi chiqdi.

19-20 Yahudo o‘g‘illaridan kelib chiqqan urug‘lar shulardir: Shelodan Shelo
urug‘i, Parazdan Paraz urug‘i, Zeraxdan Zerax urug‘i kelib chiqqan. Yahudoning
ikki o‘g‘li G‘ur va O‘nan Kan’on yurtida olamdan o‘tgan edilar*. 21 Parazdan kelib
chiqqan urug‘lar shulardir: Xazrondan Xazron urug‘i, Xomuldan Xomul urug‘i
kelib chiqqan. 22 Yahudo urug‘lari mana shulardan iboratdir. Ular sanalganda,
76.500 kishi chiqdi.

23 Issaxor o‘g‘illaridan kelib chiqqan urug‘lar shulardir: To‘lodan To‘lo urug‘i,
Puvaxdan Puvax urug‘i, 24 Yoshuvdan Yoshuv urug‘i, Shimrondan Shimron urug‘i
kelib chiqqan. 25 Issaxor urug‘lari mana shulardan iboratdir. Ular sanalganda,
64.300 kishi chiqdi.

26 Zabulun o‘g‘illaridan kelib chiqqan urug‘lar shulardir: Sareddan Sared
urug‘i, Elo‘ndan Elo‘n urug‘i, Yaxliyoldan Yaxliyol urug‘i kelib chiqqan. 27 Zabulun
urug‘lari mana shulardan iboratdir. Ular sanalganda, 60.500 kishi chiqdi.

28 Yusufning o‘g‘illari Manashe va Efrayimdan kelib chiqqan urug‘lar
quyidagilardir:

29 Manashedan kelib chiqqan urug‘lar shulardir: Moxirdan Moxir urug‘i kelib
chiqdi. Gilad urug‘i Moxirning o‘g‘li Giladdan kelib chiqqan. 30 Giladdan kelib
chiqqan urug‘lar quyidagichadir: Yazardan Yazar urug‘i, Xalekdan Xalek urug‘i,
31 Osriyoldan Osriyol urug‘i, Shakamdan Shakam urug‘i, 32 Shamidodan Shamido
urug‘i, Xaferdan Xafer urug‘i kelib chiqqan. 33 Xafer o‘g‘li Zalofxodning o‘g‘li yo‘q,
qizlari bor edi, xolos. Zalofxod qizlarining ismlari Maxlo, Nuvah, Xo‘glax, Milxo va
Tirza edi. 34 Manashe urug‘lari mana shulardan iboratdir. Ular sanalganda,
52.700 kishi chiqdi.

35 Efrayim oʻgʻillaridan kelib chiqqan urugʻlar shulardir: Shutalaxdan Shutalax
urugʻi, Boxirdan Boxir urugʻi, Taxandan Taxan urugʻi kelib chiqqan. 36 Shutalax
oʻgʻli Irondan Iron urugʻi kelib chiqqan. 37 Efrayim urugʻlari mana shulardan
iboratdir. Ular sanalganda, 32.500 kishi chiqdi.

Yusuf nasli ana shulardan iboratdir.

38 Benyamin oʻgʻillaridan kelib chiqqan urugʻlar shulardir: Belaxdan Belax
urugʻi, Oshboldan Oshbol urugʻi, Oxiramdan Oxiram urugʻi, 39 Shafufamdan
Shafufam urugʻi, Xufamdan Xufam urugʻi kelib chiqqan. 40 Belaxning oʻgʻillari Ard
va Noʻmondan kelib chiqqan urugʻlar shulardir: Arddan Ard urugʻi, Noʻmondan
Noʻmon urugʻi kelib chiqqan. 41 Benyamin urugʻlari mana shulardan iboratdir.
Ular sanalganda, 45.600 kishi chiqdi.

42 Dan oʻgʻli Xushimdan Xushim* urugʻi kelib chiqqan. Dan urugʻlari shulardan
iboratdir: 43 butun Dan nasli Shuxom urugʻidan tashkil topgan edi. Ular
sanalganda, 64.400 kishi chiqdi.

44 Osher oʻgʻillaridan kelib chiqqan urugʻlar shulardir: Yimnaxdan Yimnax
urugʻi, Yishvidan Yishvi urugʻi, Bariyodan Bariyo urugʻi kelib chiqqan. 45 Bariyo
oʻgʻillaridan kelib chiqqan urugʻlar shulardir: Xaberdan Xaber urugʻi, Malxiyoldan
Malxiyol urugʻi kelib chiqqan. 46 Osherning Serax degan qizi ham bor edi. 47 Osher
urugʻlari mana shulardan iboratdir. Ular sanalganda, 53.400 kishi chiqdi.

48 Naftali oʻgʻillaridan kelib chiqqan urugʻlar shulardir: Yaxziyoldan Yaxziyol
urugʻi, Goʻnodan Goʻno urugʻi, 49 Izardan Izar urugʻi, Shillemdan Shillem urugʻi
kelib chiqqan. 50 Naftali urugʻlari mana shulardan iboratdir. Ular sanalganda,
45.400 kishi chiqdi.

51 Shunday qilib, Isroil xalqining hamma erkaklari sanalganda, 601.730 kishi chiqdi.

52 Egamiz Musoga dedi: 53 “Yerni odamlarning soniga qarab qabilalarga mulk qilib
boʻlib ber. 54 Katta qabilaga kattaroq ulush ber, kichik qabilaga kichikroq ulush ber. Har
bir qabilaga roʻyxatga olingan odamlarning miqdoriga qarab ulush berilsin. 55 Yerni
qabilalarga roʻyxatdagi odamlarning soniga qarab boʻlib berayotganingizda, qur’a
tashlanglar*. 56 Har bir qabilaning ulushi qabilaning katta–kichikligiga qarab qur’a
boʻyicha taqsimlansin.”
57 Levi qabilasining roʻyxati esa, urugʻlari boʻyicha, quyidagichadir:

Gershondan Gershon urugʻi, Qohotdan Qohot urugʻi, Maroridan Marori urugʻi
kelib chiqqan. 58 Bu urugʻlardan: Lubnax urugʻi, Xevron urugʻi, Maxli urugʻi, Mushi
urugʻi, Koʻrax urugʻi kelib chiqqan.
Qohot Imromning otasi edi. 59 Imromning xotini esa Yoʻxavad degan ayol edi.
Yoʻxavad Levining qizi boʻlib, u Misrda tugʻilgan edi. Yoʻxavad Imromga ikki oʻgʻil
— Horun va Musoni hamda bir qiz — Maryamni tugʻib berdi. 60 Horunning
Nadov, Abihu, Elazar, Itamar degan oʻgʻillari bor edi. 61 Nadov va Abihu Egamiz
amr etmagan olovni Uning huzuriga olib kelganlari uchun nobud boʻlgan edilar*.

62 Shunday qilib, Levi qabilasining bir oylik o‘g‘il bolalaridan tortib, katta yoshdagi
erkaklarigacha sanalganda, 23.000 kishi chiqdi. Levilarga Isroil xalqi orasida ulush
berilmagani uchun, ular Isroil xalqi qatorida ro‘yxatga olinmagan edi.
63 Muso bilan ruhoniy Elazar Mo‘ab tekisligida, Yerixo shahri ro‘parasidagi Iordan
daryosi bo‘yida ro‘yxatga olgan Isroil xalqi ana shulardan iborat edi. 64 Muso bilan
ruhoniy Horun Sinay sahrosida ro‘yxatga olgan odamlarning birortasi bu ro‘yxatga
kirmadi, 65 chunki Egamiz Isroil xalqining o‘sha avlodiga: “Sizlar sahroda o‘lib
ketasizlar”, deb aytgandi*. Ulardan faqat Natan o‘g‘li Xolib va Nun o‘g‘li Yoshua tirik
qolgan edi.

27–BOB

Zalofxodning qizlari

1-2 Bir kuni Zalofxodning qizlari Uchrashuv chodiri kiraverishiga kelishdi. Zalofxod
Xaferning o‘g‘li, Giladning nevarasi, Moxirning evarasi, Yusuf o‘g‘li Manashening
chevarasi edi. Xullas, Zalofxod Manashe urug‘idan edi. Zalofxod qizlarining ismlari
Maxlo, Nuvah, Xo‘glax, Milxo va Tirza edi. Ular Muso, ruhoniy Elazar, yo‘lboshchilar va
butun jamoaning oldida turib shunday deyishdi:
3 — Otamiz sahroda vafot etdi. U Egamizga qarshi yig‘ilgan Ko‘raxning to‘dasiga
sherik bo‘lmagan, o‘z gunohi tufayli olamdan o‘tdi. Otamizning o‘g‘li yo‘q. 4 O‘g‘li
bo‘lmagani uchun otamizning nomi urug‘i orasidan o‘chib ketishi kerakmi? Bizga ham
amakilarimiz qatori yerni mulk qilib beringlar.
5 Muso ularning talabini Egamizga aytdi. 6 Egamiz shunday javob qaytardi:
7 — Zalofxodning qizlari haq gapni aytishyapti. Ularga albatta amakilari qatori yerni
mulk qilib beringlar. Otasining ulushi qizlariga berilsin. 8 Isroil xalqiga ham shunday deb
uqtir. Agar biror kishi vafot etsa–yu, o‘g‘li bo‘lmasa, uning mulki qiziga qolsin. 9 Agar qizi
ham bo‘lmasa, u odamning mulki aka–ukalariga qolsin. 10 Bordi–yu, marhumning aka–
ukalari ham bo‘lmasa, uning mulki amakilariga qolsin. 11 Agar marhumning amakilari
ham bo‘lmasa, uning mulki urug‘idagi eng yaqin qarindoshiga qolsin. O‘sha qarindoshi
merosxo‘r bo‘lsin. Sen orqali, Men, Egangiz, bergan bu amr Isroil xalqi uchun qonun
bo‘lib qaror topsin.

Yoshua Musoning vorisi qilib tanlanadi

12 Egamiz yana Musoga dedi:
— Aborim tizmasidagi* anavi toqqa chiqib, Men Isroil xalqiga beradigan yurtga qara.
13 O‘sha yurtni ko‘rganingdan keyin, akang Horun singari olamdan o‘tasan*. 14 Chunki
jamoa Zin cho‘lida Mendan noliganda, sizlar ikkovingiz Mening amrimga qarshi isyon
qilgan edingizlar. Mariva suvlari bo‘yida jamoaning ko‘zi oldida Mening
muqaddasligimni namoyon qilmadingizlar*. (O‘sha Mariva suvlari* Zin cho‘lidagi
Kadesh yaqinidadir.)
15 Muso Egamizga dedi:
16 — Ey Egam, odamzod ruhlarining Xudosi, jamoa ustidan bir odamni tayinla. 17 U
xalqni janglarga boshlab borsin, toki Sening jamoang cho‘ponsiz qo‘yday bo‘lib
qolmasin.
18 Shunda Egamiz Musoga:

— Nun o‘g‘li Yoshuani yoningga ol, — dedi. — Unda Mening Ruhim bor*. Yoshuaga
qo‘lingni qo‘y*. 19 Keyin uni ruhoniy Elazarning va butun jamoaning oldida turg‘izib, xalq
yo‘lboshchisi etib tayinla. 20 Butun Isroil jamoasi unga itoat qilishi uchun Yoshuaga o‘z
salohiyatingdan ber. 21 Yoshua hamma ishni Elazar bilan bamaslahat qilsin. Elazar Urim
orqali Yoshua uchun Mening irodamni bilib bersin*. Yoshua va butun Isroil jamoasi
hamma vaziyatda shunga qarab ish tutsin.
22 Egamiz amr etganday, Muso Yoshuani ruhoniy Elazar va butun jamoaning oldida
tik turg‘izib qo‘ydi. 23 So‘ng Egamizning Musoga bergan amriga muvofiq, qo‘lini
Yoshuaga qo‘yib, Isroil xalqining yo‘lboshchisi qilib tayinladi.

28–BOB

Doimiy nazrlar

1 Egamiz Musoga aytdi: 2 “Isroil xalqiga shunday deb buyur: ular taom nazrlarini
Menga har doim belgilangan vaqtda keltirishsin. Kuydiriladigan bu nazrlardan Menga
yoqimli hid keladi.” 3 Egamiz davom etib, Isroil xalqiga olovda kuydiriladigan nazrlar
to‘g‘risida quyidagi qonunlarni yetkaz, deb Musoga amr berdi: “Har kuni ikkita
nuqsonsiz bir yoshli qo‘chqor qo‘zini Egamizga kunda kuydiriladigan qurbonlik
qilinglar. 4 Bitta qo‘zini ertalab, ikkinchisini kechqurun qurbonlik qilinglar. 5 Har bir
qo‘ziga qo‘shib, ikki kosa* toza zaytun moyi aralashtirilgan to‘rt kosa* sifatli unni don
nazri qilib keltiringlar. 6 Egamizga yoqimli hid borishi uchun olovda kunda
kuydiriladigan qurbonliklar ilk bor Sinayda joriy qilingan edi. 7 Har bir qo‘ziga qo‘shib
ikki kosa sharob nazrini ham keltiringlar. Sharobni Egamizga atab Muqaddas chodirda
nazr qilib quyinglar. 8 Ikkinchi qo‘zini kechqurun qurbonlik qilinglar. Ertalabki
qurbonlik singari, bu qurbonlikka qo‘shib, belgilangan miqdorda don bilan sharob nazri
qilinglar. Olovda kuydiriladigan bu qurbonliklardan Egamizga yoqimli hid boradi.

Shabbat kunida qilinadigan nazrlar

9 Shabbat kuni esa ikkita bir yoshli nuqsonsiz qo‘chqor qo‘zini qurbonlik qilinglar.
Bu qurbonliklar bilan birga belgilangan miqdorda sharob nazrini va zaytun moyi
aralashtirilgan sakkiz kosa* sifatli unni don nazri qilib keltiringlar. 10 Bu kuydiriladigan
qurbonliklarni har Shabbatda kunda kuydiriladigan qurbonliklardan va unga qo‘shib
qilinadigan sharob nazridan tashqari keltiringlar.

Oyning birinchi kunida qilinadigan nazr

11 Har oyning boshida ikkita buqani, bitta qo‘chqorni va yettita bir yoshli qo‘chqor
qo‘zini Egamizga atab kuydiriladigan qurbonlik qilinglar. Hamma jonivorlar nuqsonsiz
bo‘lsin. 12 Bu qurbonliklarga qo‘shib quyidagi miqdorda zaytun moyi aralashtirilgan
sifatli unni don nazri qilib keltiringlar: har bir buqa bilan o‘n ikki kosa* un, qo‘chqor
bilan sakkiz kosa un, 13 har bir qo‘chqor qo‘zi bilan to‘rt kosa un. Olovda kuydiriladigan
bu qurbonliklardan Egamizga yoqimli hid boradi. 14 Har bir buqa bilan to‘rt kosa*
sharob, har bir qo‘chqor bilan uch kosa* sharob, har bir qo‘chqor qo‘zi bilan esa ikki
kosa* sharobni nazr qilinglar. Bu kuydiriladigan nazrlarni har oyning birinchi kunida
ado etinglar. 15 Bundan tashqari, bitta takani Egamizga gunoh qurbonligi qilinglar. Bu
hamma qurbonligu nazrlarni kunda kuydiriladigan qurbonliklar* va ularga qo‘shib
qilinadigan sharob nazridan tashqari keltiringlar.

Fisih ziyofati va Xamirturushsiz non bayramida qilinadigan nazrlar

16 Birinchi oyning* o‘n to‘rtinchi kuni Egamizga bag‘ishlangan Fisih ziyofatini*
nishonlanglar. 17 O‘n beshinchi kuni esa yetti kunlik bayram boshlanadi, sizlar yetti kun
davomida xamirturushsiz non yeyishlaringiz lozim. 18 Bayramning birinchi kuni butun
xalq muqaddas yig‘inga kelsin. Har kungi ishlaringiz bilan mashg‘ul bo‘lmanglar.
19 Egamizga atab ikkita buqani, bitta qo‘chqorni va yettita bir yoshli qo‘chqor qo‘zini
olovda kuydiriladigan qurbonlik qilinglar. Hamma jonivorlar nuqsonsiz bo‘lsin. 20 Bu
qurbonliklarga qo‘shib quyidagi miqdorda zaytun moyi aralashtirilgan sifatli unni don
nazri qilib keltiringlar: har bir buqa bilan o‘n ikki kosa un, qo‘chqor bilan sakkiz kosa un,
21 har bir qo‘chqor qo‘zi bilan to‘rt kosa un. 22 O‘zlaringizni gunohdan poklash uchun
takani gunoh qurbonligi qilinglar. 23-24 Bu nazrlarni kunda ertalab kuydiriladigan
qurbonlikdan* tashqari, yetti kun davomida keltiringlar. Bu taom nazrlarini Egamizga
yoqimli hid bo‘lishi uchun olovda kuydiringlar. Bular kunda kuydiriladigan qurbonliklar
va ularga qo‘shib qilinadigan sharob nazridan tashqari keltirilsin. 25 Bayramning
yettinchi kuni ham muqaddas yig‘in o‘tkazinglar. Har kungi ishlaringiz bilan mashg‘ul
bo‘lmanglar.

Hosil bayramida qilinadigan nazrlar

26 Hosil bayramining* birinchi kuni, Egamizga yangi hosilingizning donini nazr
qilganingizda, butun xalq muqaddas yig‘inga kelsin. Har kungi ishlaringiz bilan mashg‘ul
bo‘lmanglar. 27 Egamizga yoqimli hid borishi uchun ikkita buqa, bitta qo‘chqor, yettita
bir yoshli qo‘chqor qo‘zini kuydiriladigan qurbonlik qilinglar. 28 Bu qurbonliklarga
qo‘shib quyidagi miqdorda zaytun moyi aralashtirilgan sifatli unni don nazri qilib
keltiringlar: har bir buqa bilan o‘n ikki kosa un, qo‘chqor bilan sakkiz kosa un, 29 har bir
qo‘chqor qo‘zi bilan to‘rt kosa un. 30 O‘zlaringizni gunohdan poklash uchun bitta takani
qurbonlik qilinglar. 31 Bu nazrlarni va ularga qo‘shib qilinadigan sharob nazrini kunda
kuydiriladigan qurbonliklardan* va ularga qo‘shib qilinadigan don nazridan tashqari
keltiringlar. Qurbonlik qilinadigan hamma jonivorlaringiz nuqsonsiz bo‘lsin.

29–BOB

Karnay bayramida qilinadigan nazrlar

1 Yettinchi oyning* birinchi kunida butun xalq muqaddas yig‘inga kelsin, har kungi
ishlaringiz bilan mashg‘ul bo‘lmanglar. O‘sha kuni karnaylar chalinsin. 2 Egamizga
yoqimli hid borishi uchun bitta buqani, bitta qo‘chqorni va yettita bir yoshli qo‘chqor
qo‘zini kuydiriladigan qurbonlik qilinglar. Jonivorlar nuqsonsiz bo‘lsin. 3 Qurbonliklarga
qo‘shib quyidagi miqdorda zaytun moyi aralashtirilgan sifatli unni don nazri qilib
keltiringlar: buqa bilan o‘n ikki kosa* un, qo‘chqor bilan sakkiz kosa* un, 4 har bir
qo‘chqor qo‘zi bilan to‘rt kosa* un. 5 O‘zlaringizni gunohlardan poklash uchun bitta
takani gunoh qurbonligi qilinglar. 6 Bu nazrlar har oyning boshida va kunda
kuydiriladigan qurbonliklardan*, ularga qo‘shib, belgilangan miqdorda qilinadigan don
bilan sharob nazrlaridan tashqari keltirilsin. Bular Egamizga yoqimli hid borishi uchun
olovda kuydirilsin.

Poklanish kunida qilinadigan nazrlar

7 Yettinchi oyning* o‘ninchi kuni ham butun xalq muqaddas yig‘inga kelsin. Shu kuni

roʻza tutinglar, hech qanday ish qilmanglar. 8 Egamizga yoqimli hid borishi uchun bitta
buqani, bitta qoʻchqorni va yettita bir yoshli qoʻchqor qoʻzini kuydiriladigan qurbonlik
qilinglar. Jonivorlar nuqsonsiz boʻlsin. 9 Bu qurbonliklarga qoʻshib quyidagi miqdorda
zaytun moyi aralashtirilgan sifatli unni don nazri qilib keltiringlar: buqa bilan oʻn ikki
kosa un, qoʻchqor bilan sakkiz kosa un, 10 har bir qoʻchqor qoʻzi bilan toʻrt kosa un.
11 Bitta takani gunoh qurbonligi qilinglar. Bu nazrlar gunohlardan poklash
qurbonligidan va unga qoʻshib qilinadigan sharob nazridan hamda kunda
kuydiriladigan qurbonliklaru* ularga qoʻshib qilinadigan don bilan sharob nazrlaridan
tashqari keltirilsin.

Chayla bayramida qilinadigan nazrlar

12 Yettinchi oyning* oʻn beshinchi kuni ham butun xalq muqaddas yigʻinga kelsin.
Har kungi ishlaringiz bilan mashgʻul boʻlmanglar. Yetti kun davomida Egamizga atab
bayram qilinglar.

13 Birinchi kuni Egamizga yoqimli hid borishi uchun oʻn uchta buqani, ikkita
qoʻchqorni va oʻn toʻrtta bir yoshli qoʻchqor qoʻzini olovda kuydiriladigan qurbonlik
qilinglar. Jonivorlar nuqsonsiz boʻlsin. 14 Bu qurbonliklarga qoʻshib quyidagi miqdorda
zaytun moyi aralashtirilgan sifatli unni don nazri qilib keltiringlar: har bir buqa bilan oʻn
ikki kosa un, har bir qoʻchqor bilan sakkiz kosa un, 15 har bir qoʻchqor qoʻzi bilan toʻrt
kosa un. 16 Bitta takani gunoh qurbonligi qilinglar. Bu nazrlar kunda kuydiriladigan
qurbonliklar* va ularga qoʻshib qilinadigan don, sharob nazridan tashqari keltirilsin.

17 Ikkinchi kuni oʻn ikkita buqani, ikkita qoʻchqorni va oʻn toʻrtta bir yoshli qoʻchqor
qoʻzini kuydiriladigan qurbonlik qilinglar. Jonivorlar nuqsonsiz boʻlsin. 18 Har bir buqa,
qoʻchqor va qoʻchqor qoʻziga qoʻshib, belgilangan miqdorda don bilan sharob nazrlarini
keltiringlar. 19 Bitta takani gunoh qurbonligi qilinglar. Bu nazrlar kunda kuydiriladigan
qurbonliklar va ularga qoʻshib qilinadigan don bilan sharob nazridan tashqari keltirilsin.

20 Uchinchi kuni oʻn bitta buqani, ikkita qoʻchqorni va oʻn toʻrtta bir yoshli qoʻchqor
qoʻzini kuydiriladigan qurbonlik qilinglar. Jonivorlar nuqsonsiz boʻlsin. 21 Har bir buqa,
qoʻchqor va qoʻchqor qoʻziga qoʻshib, belgilangan miqdorda don bilan sharob nazrlarini
keltiringlar. 22 Bitta takani gunoh qurbonligi qilinglar. Bu nazrlar kunda kuydiriladigan
qurbonliklar va ularga qoʻshib qilinadigan don bilan sharob nazridan tashqari keltirilsin.

23 Toʻrtinchi kuni oʻnta buqani, ikkita qoʻchqorni va oʻn toʻrtta bir yoshli qoʻchqor
qoʻzini kuydiriladigan qurbonlik qilinglar. Jonivorlar nuqsonsiz boʻlsin. 24 Har bir buqa,
qoʻchqor va qoʻchqor qoʻziga qoʻshib, belgilangan miqdorda don bilan sharob nazrlarini
keltiringlar. 25 Bitta takani gunoh qurbonligi qilinglar. Bu nazrlar kunda kuydiriladigan
qurbonliklar va ularga qoʻshib qilinadigan don bilan sharob nazridan tashqari keltirilsin.

26 Beshinchi kuni toʻqqizta buqani, ikkita qoʻchqorni va oʻn toʻrtta bir yoshli qoʻchqor
qoʻzini kuydiriladigan qurbonlik qilinglar. Jonivorlar nuqsonsiz boʻlsin. 27 Har bir buqa,
qoʻchqor va qoʻchqor qoʻziga qoʻshib, belgilangan miqdorda don bilan sharob nazrlarini
keltiringlar. 28 Bitta takani gunoh qurbonligi qilinglar. Bu nazrlar kunda kuydiriladigan
qurbonliklar va ularga qoʻshib qilinadigan don bilan sharob nazridan tashqari keltirilsin.

29 Oltinchi kuni sakkizta buqani, ikkita qoʻchqorni va oʻn toʻrtta bir yoshli qoʻchqor
qoʻzini kuydiriladigan qurbonlik qilinglar. Jonivorlar nuqsonsiz boʻlsin. 30 Har bir buqa,
qoʻchqor va qoʻchqor qoʻziga qoʻshib, belgilangan miqdorda don bilan sharob nazrlarini
keltiringlar. 31 Bitta takani gunoh qurbonligi qilinglar. Bu nazrlar kunda kuydiriladigan

qurbonliklar va ularga qo‘shib qilinadigan don bilan sharob nazridan tashqari keltirilsin.
32 Yettinchi kuni yettita buqani, ikkita qo‘chqorni va o‘n to‘rtta bir yoshli qo‘chqor
qo‘zini kuydiriladigan qurbonlik qilinglar. Jonivorlar nuqsonsiz bo‘lsin. 33 Har bir buqa,
qo‘chqor va qo‘chqor qo‘ziga qo‘shib, belgilangan miqdorda don bilan sharob nazrlarini
keltiringlar. 34 Bitta takani gunoh qurbonligi qilinglar. Bu nazrlar kunda kuydiriladigan
qurbonliklar va ularga qo‘shib qilinadigan don bilan sharob nazridan tashqari keltirilsin.
35 Sakkizinchi kuni esa butun xalq muqaddas yig‘inga kelsin, har kungi ishlaringiz
bilan mashg‘ul bo‘lmanglar. 36 Egamizga yoqimli hid borishi uchun bitta buqani, bitta
qo‘chqorni va yettita bir yoshli qo‘chqor qo‘zini olovda kuydiriladigan qurbonlik
qilinglar. Jonivorlar nuqsonsiz bo‘lsin. 37 Har bir buqa, qo‘chqor va qo‘chqor qo‘ziga
qo‘shib, belgilangan miqdorda don bilan sharob nazrlarini keltiringlar. 38 Bitta takani
gunoh qurbonligi qilinglar. Bu nazrlar kunda kuydiriladigan qurbonliklar* va ularga
qo‘shib qilinadigan don bilan sharob nazridan tashqari keltirilsin.
39 Bayramlarda Egamizga atab kuydiriladigan qurbonlik, tinchlik qurbonligi, don
bilan sharob nazrlari shulardan iboratdir. Bular bergan va’dangizga muvofiq qilinadigan
nazr va ko‘ngildan chiqarib beriladigan nazrlardan tashqari keltiriladi.”

30–BOB

1 Shunday qilib, Egamiz, yetkaz, deb buyurgan hamma qonunlarni Muso Isroil
xalqiga aytdi.

Va’da haqida qoidalar

2 Muso Isroil yo‘lboshchilariga Egamiz bergan quyidagi qonunlarni ham aytib berdi:
3 agar birorta erkak kishi Egamizga va’da bergan bo‘lsa yoki biror narsadan o‘zini
tiyishga qasam ichgan bo‘lsa, aytganlarining hammasini bajarsin. U so‘zidan qaytmasin.
4 Agar qiz bola otasining uyida yashab yurgan davrda Egamizga va’da bersa yoki
o‘zini biror narsadan tiyishga qasam ichsa, 5 otasi qizining bergan va’dasi yoki ichgan
qasamini eshitib indamasa, qiz bola aytganlarining hammasini bajarishi shart. 6 Bordi–
yu, otasi bularni eshitganda e’tiroz bildirsa, qizning bergan va’dasi yoki ichgan qasami
bekor qilinadi. Otasi qiziga e’tiroz bildirgani uchun, Egamiz qizni bergan va’dasi yoki
ichgan qasamidan ozod qiladi.
7 Agar qiz va’da bergandan keyin yo o‘ylamasdan qasam ichib qo‘ygandan keyin
turmushga chiqsa, 8 uning eri bu haqda eshitib indamasa, qiz aytganlarining hammasini
bajarishi shart. 9 Lekin er bu haqda eshitib e’tiroz bildirsa, er xotinining bergan va’dasi
va o‘ylamasdan ichgan qasami asosidagi majburiyatlarini bekor qilgan bo‘ladi. Egamiz
xotinni o‘sha majburiyatlardan ozod qiladi. 10 Beva yoki eridan ajralgan ayol bergan
hamma va’dalari va o‘zini biror narsadan tiymoqchi bo‘lib, ichgan qasamlari ustidan
chiqishi lozim. 11 Agar turmushga chiqqan ayol va’da bersa yoki o‘zini biror narsadan
tiyishga qasam ichsa, 12 eri bu haqda eshitib indamasa, xotiniga e’tiroz bildirmasa, ayol
aytganlarining hammasini bajarishi shart. 13 Lekin er bu haqda eshitib ularni taqiqlasa,
xotinning og‘zidan chiqqan hamma va’dalaru qasamlar bekor qilinadi. Er ularni
taqiqlagani uchun, Egamiz ayolni bergan va’dasi yoki ichgan qasamidan ozod qiladi.
14 Shunday qilib, er xotinining har qanday va’dasi yoki qasamini bajarishiga ijozat
berishi yoki taqiqlashi mumkin. 15 Agar er bir kun ichida* xotiniga hech qanday e’tiroz
bildirmasa, xotini o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarishiga ijozat bergan

hisoblanadi. 16 Ammo bir kun o‘tgandan keyin ularni bekor qilsa, xotinining gunohi uchun eri jazo tortadi.

17 Egamiz Musoga bergan er va xotin o‘rtasidagi, ota va hali otasining xonadonida yashayotgan qiz o‘rtasidagi munosabatlarga oid qonunlar ana shulardan iboratdir.

31–BOB

Isroil xalqi Midiyon xalqi bilan jang qiladi

1 Egamiz Musoga dedi:

2 — Isroil xalqi uchun Midiyonlardan qasos ol*. O‘shandan so‘ng sen olamdan ko‘z yumasan.

3 Shundan keyin Muso xalqqa aytdi:

— Odamlaringizning bir qismini qurollantiringlar. Ular Midiyon xalqi bilan jang qilib, ulardan Egamizning qasosini olishsin. 4 Har bir Isroil qabilasidan mingtadan odamni urushga jo‘natinglar.

5 Har bir Isroil qabilasidan mingtadan odam tanlab olindi, jami o‘n ikki ming odam qurollanib jangga shay bo‘ldi. 6 Muso ularni va ular bilan birga Elazar o‘g‘li ruhoniy Finxazni urushga jo‘natdi. Finxaz o‘zi bilan muqaddas ashyolarni* va karnaylarni olib ketdi. Bu karnaylar xatardan darak berish uchun chalinardi.

7 Egamiz Musoga amr qilganday, Isroil sipohlari Midiyonlar bilan jang qilishdi. Ular Midiyon xalqining butun erkak zotini qirib tashlashdi. 8 Midiyon xalqining beshala shohini — Evi, Raxem, Zur, Xur, Rabani ham boshqalar qatori o‘ldirib yuborishdi. Bavo‘r o‘g‘li Balomni ham qilichdan o‘tkazishdi*. 9 Midiyon xalqining ayollariyu bolalarini asir qilib, jamiki podalarini, suruvlarini va mol–mulkini o‘lja qilib olishdi. 10 Midiyon xalqi istiqomat qilgan hamma shaharu qarorgohlarga o‘t qo‘yishdi. 11 Olgan hamma o‘ljalarini — odamidan tortib, moligacha 12 qarorgohga — Muso, ruhoniy Elazar va Isroil jamoasi huzuriga olib kelishdi. Qarorgoh Mo‘ab tekisligida, Yerixo shahri ro‘parasidagi Iordan daryosi bo‘yida joylashgan edi.

13 Muso, ruhoniy Elazar va jamoaning hamma yo‘lboshchilari ularni kutib olish uchun qarorgohdan tashqariga chiqishdi. 14 Muso urushdan qaytib kelgan mingboshi va yuzboshilardan qattiq g‘azablandi.

15 — Nimaga hamma ayollarni tirik qoldirdingiz? — deb so‘radi ulardan Muso. 16 — Balomning maslahati bilan Piyor tog‘ida* Isroil xalqini Egamizga xiyonat qilishga undagan shular–ku! O‘shalarning dastidan Egamizning jamoasi orasida o‘lat paydo bo‘lgan edi! 17 Qani, bo‘linglar, hamma o‘g‘il bolalarni va er ko‘rgan ayollarni o‘ldiringlar. 18 Faqat er ko‘rmagan qizlarni o‘zingiz uchun tirik qoldiringlar. 19 So‘ng yetti kun davomida qarorgohdan tashqarida bo‘linglar. Qaysi biringiz odam o‘ldirgan yoki jasadga qo‘l tekkizgan bo‘lsangiz, uchinchi va yettinchi kunlari poklaninglar. Sizlar bilan birga asirlar ham poklanishsin. 20 Hamma kiyimlarni, barcha charm va yog‘och buyumlarni, echki junidan to‘qilgan hamma narsalarni poklanglar.

21 Ruhoniy Elazar urushga borgan sipohlarga dedi:

— Musoga Egamiz amr etgan qonun shundan iborat: 22 oltin, kumush, bronza, temir, qalay va qo‘rg‘oshinni, 23 xullas, olovda yonmaydigan hamma narsani olovdan o‘tkazib poklanglar. Bundan tashqari, poklanish suvi* bilan ham poklanglar. Olovda yonadigan buyumlarni esa suvning o‘zi bilan poklanglar. 24 Yettinchi kuni kiyimlaringizni yuvinglar.

Shunda pok bo‘lasizlar. Keyin qarorgohga kirsangiz bo‘ladi.

O‘ljalarning taqsimlanishi

25 Egamiz yana Musoga aytdi:
26 — Sen, ruhoniy Elazar va jamoaning urug‘boshilari asir olingan odamlarni, o‘lja
qilingan hayvonlarni hisoblab chiqinglar. 27 Asiru o‘ljalarni teng ikki qismga bo‘lib, bir
qismini urushga borgan sipohlarga, ikkinchi qismini butun jamoaga beringlar.
28 Urushga borgan sipohlar ulushidan Men — Egangiz uchun ulush ajratinglar. Asirlar,
mol, eshak, qo‘y va echkilarning har besh yuztasidan bittasini Menga ulush qilib
beringlar. 29 Sipohlardan olingan bu ulushni Menga qilingan nazr sifatida ruhoniy
Elazarga beringlar. 30 Xalqqa tegishli bo‘lgan o‘ljaning ikkinchi qismidan Muqaddas
chodirim uchun mas’ul bo‘lgan levilarga ulush beringlar. Asirlar, mol, eshak, qo‘y va
echkilarning har elliktasidan bittasi levilarga berilsin.
31 Muso bilan ruhoniy Elazar Egamizning Musoga bergan amrini ado etishdi.
32 Sipohlar qo‘lga kiritgan narsalardan tashqari o‘lja qilib olgan mol–hol va
ayollarning umumiy soni quyidagicha edi:

qo‘y–echkilar — 675.000 ta,
33 mollar — 72.000 ta,
34 eshaklar — 61.000 ta,
35 er ko‘rmagan qizlar — 32.000 ta.

36 O‘ljaning urushga borgan sipohlarga tegishli qismi quyidagicha edi:

qo‘y–echkilar — 337.500 ta, 37 shulardan 675 ta qo‘y–echki Egamizning
ulushidir,
38 mollar — 36.000 ta, shulardan 72 tasi Egamizning ulushidir,
39 eshaklar — 30.500 ta, shulardan 61 tasi Egamizning ulushidir,
40 er ko‘rmagan qizlar — 16.000 ta, shulardan 32 nafari Egamizning ulushidir.

41 Egamiz Musoga amr qilganday, Muso Egamizga ajratilgan ulushni nazr sifatida
ruhoniy Elazarga berdi.
42 Muso Isroil xalqi uchun sipohlarning o‘ljasidan ajratib olgan qism quyidagilardan
iborat edi:

43 qo‘y–echkilar — 337.500 ta,
44 mollar — 36.000 ta,
45 eshaklar — 30.500 ta,
46 er ko‘rmagan qizlar — 16.000 ta.

47 Isroil xalqi ulush qilib olgan odamu hayvonlarning har elliktasidan bittasini Muso
Egamizning Muqaddas chodiri uchun mas’ul bo‘lgan levilarga berdi. Egamiz Musoga
nimani amr qilgan bo‘lsa, Muso shuni qildi.
48 Shundan so‘ng mingboshi va yuzboshilar Musoning huzuriga kelishdi. 49 Ular
Musoga:
— Biz, qullaringiz, qo‘limiz ostidagi sipohlarni sanab chiqdik, — deyishdi, — bironta
odamimizni yo‘qotmabmiz. 50 O‘zimizni Egamiz hukmidan himoya qilish uchun*, biz

topgan oltin buyumlarimizni — bilaguzuklar, muhr uzuklar, sirg‘alar va zebigardonlarimizni Egamizga nazr qilib olib keldik.

51 Muso bilan ruhoniy Elazar ular olib kelgan hamma oltin zeb–ziynatlarni olishdi.
52 Mingboshi va yuzboshilar Egamizga nazr qilgan oltinning umumiy og‘irligi o‘n ikki pudga yaqin* chiqdi. 53 Oddiy sipohlar esa qo‘lga kiritgan o‘ljalarni o‘zlariga qoldirgan edilar. 54 Isroil xalqini Egamiz doim esida tutishi uchun Muso bilan ruhoniy Elazar mingboshi va yuzboshilardan olgan oltin buyumlarni Uchrashuv chodiriga olib kelishdi.

32–BOB

Iordan daryosining sharqiga o‘rnashgan qabilalar

1 Ruben va Gad qabilalarining chorvasi nihoyatda ko‘p edi. Ular Yazir va Gilad yerlarining* chorvabop ekanligini ko‘rib, 2 Muso, ruhoniy Elazar va jamoa yo‘lboshchilarining oldiga borib shunday deyishdi:

3 — Otaro‘t, Dibon, Yazir, Nimro, Xashbon, Elaley, Savom, Navo, Bayo‘n shaharlari
4 joylashgan butun o‘lkani Egamiz Isroil xalqiga mag‘lub qilib berdi. Bular nihoyatda chorvabop yerlar ekan. Biz, qullaringizda esa chorva bor. 5 Agar biz sizlarning iltifotingizga sazovor bo‘lgan bo‘lsak, o‘sha yerlarni bizga mulk qilib bersangizlar, bizni Iordan daryosining narigi tomoniga* olib o‘tmasangizlar.

6 Shunda Muso Gad bilan Ruben qabilalariga shu gapni aytdi:

— Birodarlaringiz urushga borganlarida, sizlar bu yerda qolasizlarmi? 7 Nimaga sizlar, Isroil xalqi Egamiz bergan yurtga bormasin deb, ularning ra’yini qaytaryapsizlar?
8 Men otalaringizni Kadesh–Barnadan yurtni ko‘rib kelish uchun jo‘natganimda*, ular ham xuddi shunday yo‘l tutishgan edi. 9 Ular Eshko‘l soyligigacha borib, yurtni ko‘rib chiqqan edilar. So‘ng Egamiz bergan yurtga Isroil xalqi bormasin deb, ularning ra’yini qaytargan edilar. 10 O‘sha kuni Egamiz otalaringizdan qattiq g‘azablanib shunday qasam ichgan edi: 11 “Misrdan chiqqan yigirma va undan yuqori yoshdagi odamlar Men Ibrohim, Is’hoq va Yoqubga va’da qilgan yurtga kirmaydilar, chunki ular Menga sodiq qolmadilar. 12 O‘sha yurtga faqat Xanaz urug‘idan Yafunax o‘g‘li Xolib bilan Nun o‘g‘li Yoshua kiradilar, chunki ular ikkovigina Men, Egangizga sodiq qoldilar.” 13 Ha, Egamiz Isroil xalqidan qattiq g‘azablangan edi. Egamiz Uning oldida qabihlik qilgan ajdodlaringizni qirq yil — ular batamom tugab bitmaguncha sahroda kezdirdi. 14 Endi esa siz, ey gunohkorlar nasli, otalaringizning o‘rnini egallab, Egamizning g‘azabini Isroil xalqiga qarshi qo‘zg‘atyapsizlar! 15 Agar Egamizdan yuz o‘girsangizlar, U Isroil xalqini yana sahroda tashlab ketadi. Butun xalq sizlar tufayli qirilib ketadi.

16 Lekin Ruben va Gad qabilalari Musoga yaqin kelib, shunday deyishdi:

— Biz bu yerda suruvlarimiz uchun qo‘y qo‘ralari, bola–chaqalarimiz uchun shaharlar quramiz. 17 O‘zimiz esa qurollanib*, Isroil xalqini ularning yurtiga joylashtirmagunimizcha, safning boshida boramiz. Shu asnoda bolalarimiz mustahkam shaharlarda qoladilar, mahalliy xalqlar ularga xavf solmaydilar. 18 Isroil xalqining har biri o‘z mulkiga ega bo‘lmaguncha, biz uyimizga qaytmaymiz. 19 Biz Iordan daryosining narigi tomonidan o‘zimizga mulk olmaymiz, chunki bizning mulkimiz Iordanning bu tomonida — sharq tomonida bo‘ladi.

20 Muso ularga shunday dedi:

— Agar sizlar haqiqatan ham aytganingizni qilsangizlar, Egamiz boshchiligida jang

qilish uchun qurollaninglar. 21 Qo‘liga qurol tutgan barcha sipohlaringiz Iordan
daryosidan o‘tsin. Egamiz O‘z g‘animlarini quvib yubormaguncha, Uning oldida
boringlar. 22 Egamiz o‘sha yurtni taslim qilgandan keyingina, shu yerga qaytib
kelishingiz mumkin. Shunda sizlar Egamiz oldida ham, Isroil xalqi oldida ham o‘z
majburiyatingizdan ozod bo‘lasiz. Iordan daryosining sharq tomonidagi yer sizning
Egamizdan olgan mulkingiz bo‘ladi. 23 Agar shunday qilmasangizlar, sizlar Egamizga
qarshi gunoh qilgan bo‘lasizlar. Gunohingiz o‘z boshingizni yeydi. 24 Bolalaringiz uchun
shaharlar, suruvlaringiz uchun qo‘ralar quringlar. Lekin va’dangiz ustidan chiqinglar.
25 Gad va Ruben qabilalari Musoga:
— Hazrat nima buyruq bersalar, qullari shuni ado etgaylar, — deyishdi. 26 —
Bolalarimiz, xotinlarimiz, podalaru suruvlarimiz shu yerda — Giladdagi shaharlarda
qoladi. 27 Lekin qo‘liga qurol tutgan har bir erkagimiz, hazratimiz aytganlariday, Egamiz
boshchiligida jang qilish uchun daryoning narigi tomoniga o‘tadi.
28 Shundan keyin Muso ruhoniy Elazarga, Nun o‘g‘li Yoshuaga va Isroil qabilalarining
urug‘boshilariga buyruq berib dedi:
29 — Agar Gad va Ruben qabilalari qurollanib, Egamiz boshchiligida jang qilish uchun
sizlar bilan birga Iordanning narigi tomoniga o‘tishsa, sizlar o‘sha yurtni mag‘lub
qilganingizdan keyin Gilad yerlarini ularga mulk qilib beringlar. 30 Bordi–yu, ular sizlar
bilan birga qurollanib bormasa, boshqa qabilalar qatori, Kan’on yurtidan mulk olishadi.
31 Shunda Gad va Ruben qabilalari:
— Egamiz qullaringizga qanday amr bergan bo‘lsa, hammasini ado etamiz, — deb
javob berishdi. 32 — Biz qurollanib, Egamiz boshchiligida Iordan daryosining narigi
tomoniga o‘tib, Kan’on yurtiga boramiz. Lekin Iordanning shu tomonidagi yerlar bizning
mulkimiz bo‘la qolsin.
33 Shundan keyin Muso Gad bilan Ruben qabilalariga hamda Yusuf o‘g‘li Manashe
qabilasining yarmiga* Amor xalqining shohi Sixo‘nning yurti bilan Bashan shohi O‘gning
yurtini — ularning jamiki yerlariyu shaharlarini, shahar atrofidagi o‘lkalarni berdi.
34-36 Gad qabilasi Dibon, Otaro‘t, Aror, Otro‘t–Shifan, Yazir, Yohboxo, Bayt–Nimro va
Bayt–Xoron degan mustahkam shaharlarni qaytadan barpo qilib, qo‘y qo‘ralarini qurdi.
37-38 Ruben qabilasi ham Xashbon, Elaley, Xiratayim, Navo, Baal–Miyon va Sivmo
shaharlarini qayta qurdi. Ular tiklagan shaharlariga yangi nom berishdi.
39 Manashe o‘g‘li Moxirning avlodlari Gilad o‘lkasiga borishdi. Ular Giladni bosib olib,
Amor xalqini u yerdan quvib chiqarishdi. 40 Shundan keyin Muso Giladni Moxir avlodiga
berdi. Moxir avlodi u yerda joylashdi. 41 Manashe o‘g‘li Yovir esa Amor xalqining
shaharlarini egalladi. U o‘sha yerlarga Yovir shaharlari* deb nom berdi. 42 Navah Qanot
shahrini va uning atrofidagi qishloqlarni egalladi, u yerlarga Navah deb o‘zining ismini
berdi.

33–BOB

Misrdan Mo‘abga bo‘lgan safar

1-2 Muso Egamizning amriga ko‘ra, safar davomida qarorgoh qurilgan joylarning
nomlarini birma–bir ro‘yxat qilib yozgan edi. Muso va Horun boshchiligida Misrdan
qabila–qabila bo‘lib chiqqan Isroil xalqining to‘xtagan joylari quyidagilardir:

3 Birinchi oyning* o‘n beshinchi kunida, Fisih ziyofatining ertasiga Isroil xalqi
Ramzes shahrini tark etdi. Ular jamiki Misr xalqining ko‘zi oldida shaxdam
qadam bilan Misrdan chiqib ketishdi. 4 Shu vaqtda Misrliklar Egamiz nobud
qilgan hamma to‘ng‘ich o‘g‘illarini dafn qilayotgan edilar. Egamiz shu yo‘sinda
Misr xudolarini mahkum etgan edi.
5 Shunday qilib, Isroil xalqi Ramzesni tark etib, Suxotda qarorgoh qurdi.
6 So‘ng Suxotdan ketib, sahroning chetidagi Etxamda qarorgoh qurdi.
7 Ular Etxamdan chiqib, orqaga — Baal–Zafo‘nning sharqidagi Piy–Xaxiro‘tga
yo‘l olib, Migdol yonida qarorgoh qurishdi.
8 Piy–Xaxiro‘tdan ham chiqib, Qizil dengizdan* o‘tishdi–da, sahro tomon yo‘l
olishdi. Etxam sahrosini uch kun kezganlaridan keyin, Maroda qarorgoh
qurishdi.
9 Keyin Marodan ketib, Ilimda qarorgoh qurishdi. Ilimda o‘n ikkita buloq va
yetmishta xurmo daraxti bor edi.
10 Ular Ilimdan keyin, Qizil dengiz* bo‘yida qarorgoh qurishdi.
11 Keyin Qizil dengiz bo‘yidan ketib, Sin sahrosida* qarorgoh qurishdi.
12 Sin sahrosidan ketib, Dofkaxda qarorgoh qurishdi.
13 Dofkaxdan ketib, Elishda qarorgoh qurishdi.
14 Elishdan ketib, Rafidimda qarorgoh qurishdi. Lekin u yerda ichimlik suvi
yo‘q edi*.
15 Rafidimdan ketib, Sinay sahrosida qarorgoh qurishdi.
16 Sinay sahrosidan ketib, Xivrut–Xattavoda qarorgoh qurishdi.
17 Xivrut–Xattavodan ketib, Xazero‘tda qarorgoh qurishdi.
18 Xazero‘tdan ketib, Ritmada qarorgoh qurishdi.
19 Ritmadan ketib, Rimmon–Parazda qarorgoh qurishdi.
20 Rimmon–Parazdan ketib, Libnada qarorgoh qurishdi.
21 Libnadan ketib, Rissada qarorgoh qurishdi.
22 Rissadan ketib, Kaxeletaxda qarorgoh qurishdi.
23 Kaxeletaxdan ketib, Shafer tog‘ida qarorgoh qurishdi.
24 Shafer tog‘idan ketib, Xaradaxda qarorgoh qurishdi.
25 Xaradaxdan ketib, Makxilo‘tda qarorgoh qurishdi.
26 Makxilo‘tdan ketib, Taxatda qarorgoh qurishdi.
27 Taxatdan ketib, Terahda qarorgoh qurishdi.
28 Terahdan ketib, Mitkada qarorgoh qurishdi.
29 Mitkadan ketib, Xashmonaxda qarorgoh qurishdi.
30 Xashmonaxdan ketib, Mosaro‘tda qarorgoh qurishdi.
31 Mosaro‘tdan ketib, Baniyaqonda qarorgoh qurishdi.
32 Baniyaqondan ketib, Xor–Xagigadda qarorgoh qurishdi.
33 Xor–Xagigaddan ketib, Yotbotoda qarorgoh qurishdi.
34 Yotbotodan ketib, Avro‘nda qarorgoh qurishdi.
35 Avro‘ndan ketib, Ezyo‘n–Geberda qarorgoh qurishdi.
36 Ezyo‘n–Geberdan ketib, Zin cho‘lidagi Kadeshda qarorgoh qurishdi.
37 Kadeshdan ketib, Edom yurtining chegarasidagi Xo‘r tog‘ida qarorgoh
qurishdi. 38 Ruhoniy Horun Egamizning amri bilan Xo‘r tog‘iga chiqib, o‘sha yerda
vafot etdi. Bu voqea Isroil xalqi Misrdan chiqqaniga qirq yil bo‘lganda, beshinchi

oyning* birinchi kunida sodir bo‘ldi. 39 Horun Xo‘r tog‘ida vafot etganda 123
yoshda edi.
40 Kan’onlik Arod shohi shu paytda: “Isroil xalqi kelyapti” degan xabarni
eshitdi. U Kan’ondagi Nagav cho‘lida* yashardi.
41 Isroil xalqi Xo‘r tog‘idan ketib, Zalmo‘noda qarorgoh qurdi.
42 Ular Zalmo‘nodan ketib, Punonda qarorgoh qurishdi.
43 Punondan ketib, Obo‘tda qarorgoh qurishdi.
44 Obo‘tdan ketib, Mo‘ab hududidagi Ivay–Aborimda qarorgoh qurishdi.
45 Ivay–Aborimdan* ketib, Dibon–Gadda qarorgoh qurishdi.
46 Dibon–Gaddan ketib, Elmon–Diblatayimda qarorgoh qurishdi.
47 Elmon–Diblatayimdan ketib, Navo tog‘ining yonidagi Aborim tog‘larida*
qarorgoh qurishdi.
48 Aborim tog‘laridan ketib, Mo‘ab tekisligida, Yerixo shahrining ro‘parasidagi
Iordan daryosi bo‘yida qarorgoh qurishdi. 49 Ular Mo‘ab tekisligida Iordan
bo‘ylab, Bayt–Yashimo‘tdan tortib, Ovil–Shitimgacha qarorgoh qurishdi.

Iordan daryosidan o‘tishdan oldin berilgan ko‘rsatmalar

50 Mo‘ab tekisligida, Yerixo shahrining ro‘parasidagi Iordan daryosi bo‘yida Egamiz
Musoga shunday dedi:
51 — Isroil xalqiga ayt: “Sizlar Iordan daryosining narigi tomoniga o‘tib, Kan’on
yurtiga borganlaringizdan keyin 52 u yerning aholisini haydab chiqaringlar. Ularning
hamma tosh va quyma butlarini yo‘q qilinglar, jamiki sajdagohlarini buzib tashlanglar.
53 O‘sha yurtga egalik qilinglar, u yerda o‘rnashib olinglar, chunki Men o‘sha yurtni
sizlarga berganman. 54 Yerlarni urug‘laringiz orasida qur’a bo‘yicha* bo‘lib beringlar.
Katta uruqqa kattaroq ulush, kichik uruqqa kichikroq ulush beringlar. Qur’a bo‘yicha
kimga qayer chiqsa, o‘sha yer o‘sha urug‘ning ulushi bo‘lib qoladi. Shu yo‘sinda yerlarni
qabilalar orasida bo‘lib beringlar. 55 Agar sizlar o‘sha yurtning aholisini haydab
chiqarmasangiz, ularning qolgan–qutganlari sizlar uchun ko‘zga kirgan zirapchaday,
biqinga sanchilgan tikanday bo‘ladi. Ular sizlarni yashab turgan yurtingizda siqadi.
56 Shunda Men ularning boshiga nima solmoqchi bo‘lgan bo‘lsam, sizning boshingizga
solaman.”

34–BOB

Kan’on yurtining chegaralari

1 Egamiz Musoga dedi:
2 — Isroil xalqiga Mening shu gapimni yetkaz: “Kan’on yurtiga kirib borganingizdan
keyin, sizlarga mulk qilib beriladigan bu yurt quyidagicha chegaralanadi:

3 Yurtingizning janubiy qismi Zin cho‘lidan Edom yurti bo‘ylab cho‘ziladi.
Janubiy chegarangiz sharq tomonda O‘lik dengizning* janubiy qirg‘og‘idan
boshlanib, 4 Chayonlar dovonidan* o‘tadi va janubga — Zin cho‘li tomonga
cho‘ziladi. Chegarangizning eng janubiy nuqtasi Kadesh–Barna bo‘ladi. U yerdan
chegara Xazor–Adargacha borib, Ozmon orqali o‘tadi. 5 So‘ng burilib, Misr
chegarasidagi irmoq* bo‘ylab O‘rta yer dengiziga borib taqaladi.
6 O‘rta yer dengizining qirg‘og‘i g‘arbiy chegarangizni tashkil qiladi.

7 Shimoliy chegarangiz esa O‘rta yer dengizidan sharqqa, Xo‘r tog‘iga* tomon
cho‘ziladi. 8 Xo‘r tog‘idan Levo–Xomatgacha* boradi, so‘ng Zadoddan o‘tib,
9 Zifro‘nga cho‘zilib boradi va Xazor–Enanda to‘xtaydi. Bu sizning shimoliy
chegarangiz bo‘ladi.
10 Sharqiy chegarangiz shimoldagi Xazor–Enandan boshlanib, janub tomon
Shafomga boradi, 11 so‘ng yana janubga cho‘zilib, Oyinning sharq tomonidagi
Rivlodan o‘tadi va Jalila ko‘lining* sharq tomonidagi qirlar bo‘ylab boradi.
12 So‘ng chegara Iordan daryosi bo‘ylab janubga cho‘zilib, O‘lik dengizga borib
to‘xtaydi.

Har tomondan chegaralangan mana shu yerlar sizlarning yurtingiz bo‘ladi.”
13 Shundan so‘ng Muso Isroil xalqiga buyurdi:
— Bu yurtni qur’a tashlab*, bo‘lib olinglar. Egamiz bu yurtni to‘qqizta qabilaga va bir qabilaning yarmiga bo‘lib berishni amr etgan. 14-15 Ruben, Gad qabilalari va Manashe qabilasining yarmi xonadonlari bo‘yicha Yerixo shahrining ro‘parasidagi Iordanning sharq tomonidan o‘zlariga tegishli mulkni olganlar.

Yurtning taqsimlanishiga javobgar yo‘lboshchilar

16 Egamiz Musoga yana aytdi: 17 “Ruhoniy Elazar va Nun o‘g‘li Yoshua yurtni Isroil xalqiga bo‘lib berishsin. 18 Har bir qabiladan bittadan yo‘lboshchini ularga yordamchi qilib tayinlanglar. 19 O‘sha odamlarning ismlari quyidagichadir:

Yahudo qabilasidan — Yafunax o‘g‘li Xolib.
20 Shimo‘n qabilasidan — Omihud o‘g‘li Shomuil.
21 Benyamin qabilasidan — Xislon o‘g‘li Elidod.
22 Dan qabilasidan — Yoxli o‘g‘li Bukki.
23 Yusuf o‘g‘li Manashe qabilasidan — Efo‘d o‘g‘li Xanniyol.
24 Efrayim qabilasidan — Shifton o‘g‘li Kamuvol.
25 Zabulun qabilasidan — Parno‘x o‘g‘li Elizofon.
26 Issaxor qabilasidan — Ozzon o‘g‘li Paltiyol.
27 Osher qabilasidan — Shalumi o‘g‘li Oxixud.
28 Naftali qabilasidan — Omihud o‘g‘li Padahiyol.”

29 Egamiz ana shu odamlarga, Isroil xalqiga Kan’on yurtini mulk qilib bo‘lib beringlar, deb amr bergan edi.

35–BOB

Levilarga berilgan shaharlar

1 Mo‘ab tekisligida, Yerixo shahrining ro‘parasidagi Iordan daryosi bo‘yida Egamiz Musoga dedi: 2 “Isroil xalqiga buyur, ular mulk qilib oladigan yeridan levilarga yashash uchun shaharlar berishsin. Shuningdek, shaharlarning atrofidagi yaylovlarni ham berishsin. 3 Shaharlar levilarga vatan bo‘ladi, yaylovlar esa mol–holi uchun yaraydi.
4 Levilarga beriladigan yaylovlar shahar devoridan 1000 tirsak* masofada bo‘lgan tevarakdagi hamma yaylovlarni o‘z ichiga olsin. 5 Shahar tashqarisidan sharq, janub, g‘arb, shimol tomonga 2000 tirsakdan* o‘lchanglar, shahar o‘rtada bo‘lsin. Shahar atrofi

esa levilarning yaylovlari bo‘ladi.
6 Sizlar levilarga beradigan shaharlaringizning oltitasi panoh shaharlar bo‘lsin.
Birortangiz bexosdan odam o‘ldirib qo‘ysangiz, o‘sha shaharlarning biriga qochib
borishingiz mumkin. Bu oltita shahardan tashqari, levilarga yana qirq ikkita shahar
beringlar. 7 Hammasi bo‘lib levilarga qirq sakkizta shahar va ular atrofidagi yaylovlar
berilsin.
8 Isroil xalqi mulkidan har bir qabila olgan ulushining hajmiga ko‘ra, levilarga
shaharlar ajratib beringlar. Kattaroq ulush olgan qabila ko‘proq, kichikroq ulush olgan
qabila esa kamroq shahar bersin.”

Panoh shaharlar

9-10 Isroil xalqiga quyidagi amr va qonunlarni yetkaz, deb Musoga Egamiz shunday
amr berdi: “Sizlar Iordan daryosining narigi tomoniga* o‘tib, Kan’on yurtiga
kirganlaringizdan keyin, 11 o‘zlaringiz uchun panoh shaharlarni tanlanglar. Birortasi
bexosdan odam o‘ldirib qo‘ysa, o‘sha shaharlarning biriga qochib bora oladigan bo‘lsin.
12 Qotil jamoa oldida hukm qilinishdan oldin o‘ldirilib qo‘yilmasligi uchun bu shaharlar
qotilga qasoskordan panoh bo‘ladi.
13 Oltita panoh shahringiz bo‘lsin. 14 Uchta shaharni Iordan daryosining sharq
tomonidan, qolgan uchtasini Kan’on yurtidan tanlanglar. 15 Ana shu oltita shahar sizlar
uchun ham, orangizda vaqtincha yoki doimiy ravishda istiqomat qilayotgan musofirlar
uchun ham panoh bo‘ladi. Birortasini bexosdan o‘ldirib qo‘ygan odam o‘sha yoqqa
qochib borsin.
16 Agar birorta odam boshqasini temir asbob bilan urib o‘ldirib qo‘ysa, urgan odam
qotil hisoblanadi va o‘sha odamning jazosi o‘limdir. 17 Odamni tosh bilan urib o‘ldirgan
kishi ham qotildir. Qotilning jazosi o‘limdir. 18 Odamni yog‘och qurol bilan urib o‘ldirgan
kishi ham qotildir. Qotilning jazosi o‘limdir. 19 Marhumning xunini oladigan odam qotilni
o‘ldirsin. Qotilni uchratib qolganda uning jonini olsin. 20 Shuningdek, agar birortasi
boshqasini yomon ko‘rgani uchun itarib yoki qasddan unga biror narsani otib o‘ldirib
qo‘ysa, 21 yoxud adovatdan unga musht tushirib o‘ldirsa, urgan odamning jazosi o‘limdir.
U qotildir. Marhumning xunini oladigan odam qotilni uchratganda o‘ldirsin.
22 Bordi–yu, biri boshqasini bexosdan, xusumat qilmay, turtib yuborsa yoki qasd
qilmay biror narsa otsa 23-24 yo ko‘rmay turib ustiga tosh tushirib yuborsa va o‘sha odam
o‘lsa, jamoa qasoskor bilan odam o‘ldirgan kishining orasidagi mojaroni hal qilsin.
Chunki odam o‘ldirganning va marhumning orasida hech qanday adovat bo‘lmagan edi.
25 Jamoa qotilni qasoskorning qo‘lidan xalos qilib, uni qaytarib panoh shaharga jo‘natsin.
Moy surtib tanlangan oliy ruhoniy vafot etguncha, qotil o‘sha yerda qolsin.
26 Lekin qotil panoh shahar chegarasidan chiqsa 27 va qasoskor uni panoh shahardan
tashqarida tutib olib o‘ldirsa, qasoskor qotillikda ayblanmaydi. 28 Chunki oliy ruhoniy
vafot etguncha, qotil panoh shaharda qolishi lozim edi. Oliy ruhoniyning vafotidan
so‘nggina u o‘z uyiga qaytib borishi mumkin edi. 29 Mana shular sizlar uchun
avlodlaringiz osha, qayerda yashasangiz ham, qonun bo‘lib qolsin.
30 Odam o‘ldirgan kishi faqat guvohlarning ko‘rsatmalari asosidagina qotillikda
ayblanib, o‘lim jazosiga tortilsin. Bitta odamning guvohligi asosida hech kim
o‘ldirilmasin.
31 O‘limga hukm qilingan qotilning joni evaziga pul olmanglar. Qotilni albatta

oʻldiringlar.

32 Panoh shaharga qochib ketgan odamdan ham pul olmanglar, u oliy ruhoniyning
vafotidan oldin oʻz yeriga qaytib kelib yashashi uchun yoʻl qoʻymanglar. 33 Oʻzingiz
yashab yurgan yerni bulgʻamanglar. Yer toʻkilgan qon tufayli bulgʻanadi. Qotillik tufayli
bulgʻangan yerni faqat qotilning qoni bilan tozalab boʻladi. 34 Oʻzlaringiz yashaydigan va
Men istiqomat qiladigan yerni bulgʻamanglar, zotan, Men, Egangiz, Isroil xalqi orasida
istiqomat qilaman.”

36–BOB

Turmushga chiqqan ayollarning merosi

1 Bir kuni Gilad urugʻining urugʻboshilari Muso bilan Isroil yoʻlboshchilari oldiga
kelishdi. Gilad Moxirning oʻgʻli, Manashening nevarasi, Yusufning evarasi edi.

2 — Ey Muso hazratlari, — deya murojaat qilishdi ular. — Egamiz sizga, Isroil xalqiga
qur’a boʻyicha* yerni mulk qilib ber, deb amr qilganda, inimiz Zalofxodning mulkini
qizlariga berishingizni aytgan edi*. 3 Bordi–yu, Zalofxodning qizlari Isroilning boshqa
qabilasidagi yigitlarga turmushga chiqsalar, ularning mulki turmushga chiqqan
urugʻning mulkiga qoʻshiladi. Shunda qabilamiz ulush qilib olgan yerning bir qismidan
ayrilib qoladi. 4 Qutlugʻ yil* kelganda esa Zalofxod qizlarining mulki oʻzlari turmushga
chiqqan urugʻning mulkiga qoʻshilib, qabilamizning mulkidan ayirib olinadi va biz
qabilamizga tegishli boʻlgan bir qism yerdan mahrum boʻlib qolamiz.

5 Muso, Egamizning amriga binoan, Isroil xalqiga aytdi:

— Yusuf avlodining gapi toʻgʻri. 6 Egamiz Zalofxodning qizlari haqida shunday amr
berdi: Zalofxodning qizlari oʻzlari xohlagan odamlarga turmushga chiqishsin. Lekin ular
turmushga chiqadigan yigitlar Zalofxodning qabilasidan boʻlishlari shart. 7 Isroil
xalqining mulki bir qabiladan boshqasiga oʻtib ketmasin. Har bir Isroil odami otalaridan
meros qilib olgan yerni saqlasin. 8 Isroilning hamma qabilasida mulkka merosxoʻrlik
qiladigan har qanday qiz, oʻzining qabilasidan birortasiga turmushga chiqsin, toki
Isroilning hamma odamlari mulk qilib olgan yerlariga oʻzlari egalik qilsin. 9 Ana shunda
mulk bir qabiladan boshqa qabilaga oʻtib ketmaydi. Isroil xalqining har bir qabilasi oʻz
mulkini saqlab qolsin.

10 Egamiz Musoga nima amr etgan boʻlsa, Zalofxodning qizlari shuni qildilar.
11 Zalofxodning Maxlo, Tirza, Xoʻglax, Milxo va Nuvah ismli qizlari oʻz amakilarining
oʻgʻillariga turmushga chiqdilar. 12 Ular turmushga chiqqan yigitlar Yusuf oʻgʻli Manashe
urugʻlaridan edilar. Shunday qilib, u qizlarning merosi otalari qabilasida qoldi.

13 Muso orqali Isroil xalqiga Egamiz bergan amr va qonunlar ana shulardan iboratdir.
Bu qonunlar Moʻab tekisligida, Yerixo shahrining roʻparasidagi Iordan daryosi boʻyida
berilgan edi.

IZOHLAR

1:1 *Isroil xalqi Misr yurtini tark etib…* — Chiqish 12:40-42 ga qarang.

1:1 *Ikkinchi oy* — ibroniy kalendarining Ziv oyi nazarda tutilgan. Hozirgi kalendarga koʻra, bu oy taxminan aprelning oʻrtasidan boshlanadi.

1:17-19 *ikkinchi oy* — shu bobning 1–oyatiga berilgan ikkinchi izohga qarang.

1:20-21 *Urugʻi va xonadoni boʻyicha…urushga yaroqli erkaklarning soni…* — ibroniycha matndagi bu jumla shu bobning 22-43–oyatlarida roʻyxat qilingan har bir qabila nomiga qoʻshib takrorlangan. Ravon oʻqilishi uchun mazkur tarjimada bu jumla har bir oyatda qaytarilmadi.

1:20-21 *Isroil* — Yoqubning yana bir ismi (Ibtido 32:27-28 ga qarang).

1:50 *Muqaddas ahd chodiri* — ibroniycha matnda *Guvohlik chodiri* (shu bobning 53–oyatida ham bor), Muqaddas chodirning yana bir nomi. Ibroniycha matndagi iboraning *guvohlik* soʻzi oʻnta amr yozilgan ikkita tosh lavhaga ishora qiladi. Bu tosh lavhalar Xudo va Uning xalqi oʻrtasida tuzilgan ahdning dalili, ya'ni toshga bitilgan guvohlik boʻlib xizmat qilardi. Bu ikki tosh lavha Muqaddas chodirdagi Ahd sandigʻining ichida saqlanardi (Chiqish 40:20 ga qarang).

2:14 *Duvel* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Ruvel*. Uning Duvel degan shakli 1:14 dan olingan (yana 7:42, 47, 10:20 ga qarang).

3:4 *…Nadov bilan Abihu…nobud boʻlgan edilar* — Levilar 10:1-2 ga qarang.

3:13 *…Isroil xalqining barcha toʻngʻichlarini…Oʻzim uchun ajratib olganman* — Chiqish 13:1-2, 11-16 ga qarang.

3:28 *8600* — ibroniycha matndan. Qadimiy yunoncha tarjimaning ba'zi qoʻlyozmalarida *8300* (ibroniychada 8600 va 8300 ning yozilishi nihoyatda oʻxshashdir). 8300 ga shu bobning 22–oyatidagi va 34–oyatidagi sonlarni qoʻshganda, 39–oyatdagi son, ya'ni 22.000 soni kelib chiqadi. 39–oyatdagi son aniq son boʻlmay, balki taxminiy son boʻlishi ham mumkin.

3:28 *Muqaddas chodir* — bu oyatda aynan Muqaddas xona va Eng muqaddas xona nazarda tutilgan (shu bobning 32–oyatida ham bor).

3:38 *…Muqaddas chodirning oldida…* — ibroniycha matnda *…Muqaddas chodir, Uchrashuv chodirining oldida…*. Muqaddas chodir yana Uchrashuv chodiri deb ham aytiladi.

3:47 *…besh boʻlakdan kumush ol. Har bir kumush boʻlakning ogʻirligi ikki yarim misqol boʻlsin* — ibroniycha matnda *…besh shaqaldan ol. Har bir shaqalning ogʻirligi Muqaddas chodirda ishlatiladigan shaqalning ogʻirligiga teng kelib, 20 gera boʻlsin*. 20 gera taxminan 11 grammga toʻgʻri keladi, demak, har bir ortiq odam evaziga berilgan kumush taxminan 55 grammga toʻgʻri keladi.

3:49-50 *…1365 ta kumush boʻlakni yigʻib oldi* — ibroniycha matnda *…1365 ta kumush shaqalni yigʻib oldi. Har bir shaqalning ogʻirligi Muqaddas chodirda ishlatiladigan shaqalning ogʻirligiga teng edi*. Muqaddas chodirda ishlatilgan standart shaqal taxminan 11 grammga toʻgʻri keladi, demak, yigʻib olingan kumushning umumiy ogʻirligi taxminan

15 kiloga to‘g‘ri keladi.

4:5 *Sandiq* — ibroniycha matnda *Guvohlik sandig‘i*, Ahd sandig‘ining yana bir nomi. Ibroniycha matndagi iboraning *guvohlik* so‘zi o‘nta amr yozilgan ikkita tosh lavhaga ishora qiladi. Ikkala tosh lavha Sandiqning ichida saqlanib, Xudo va Uning xalqi o‘rtasida tuzilgan ahdning dalili, ya’ni toshga bitilgan guvohlik bo‘lib xizmat qilardi.

4:6 *yumshoq teri* — yuqori sifatli, oshlangan teri nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin.

4:7 *muqaddas nonlar* — bu nonlar Egamizning Muqaddas chodirda zohir bo‘lishini aks ettiruvchi timsol bo‘lib, Xudo Isroil xalqining qudrati va ta’minlovchisi ekanligidan darak berib turgan. Nonlar Chodirdagi maxsus xontaxtaga qo‘yilib, har Shabbat kuni yangi pishirilgan nonlar bilan almashtirib turilgan (Levilar 24:5-9 ga qarang).

4:16 *muqaddas qiladigan moy* — zaytun moyi va ziravorlarning maxsus aralashmasidan tayyorlanib, faqat ruhoniylar tomonidan diniy marosimlarni ado etish uchun ishlatilgan (Chiqish 30:22-33 ga qarang).

5:2 *teri kasalligi* — bu ibora ibroniychada har xil teri kasalliklariga nisbatan ishlatilgan so‘zning tarjimasidir. Odatda bu ibora moxov kasalligiga ishora deb tushuniladi. Teri kasalliklaridan birortasiga yo‘liqqan kishi harom hisoblanar edi. Xasta odam kasalligini boshqalarga yuqtirmasligi va ularni harom qilmasligi uchun, boshqalardan ajratib qo‘yilar edi (Levilar 13:45-46 ga qarang).

5:15 *to‘rt kosa* — ibroniycha matnda *efaning o‘ndan bir qismi*, taxminan 2 litrga to‘g‘ri keladi.

5:21 *…seni bola tug‘a olmaydigan qilib qo‘ysin* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *…sonlaringni quritsin, qorningni shishirsin*. Ko‘p olimlarning sharhlashicha, bu ibroniycha iboraning ma’nosi — bolang tushib qolsin yoki bolang o‘lik tug‘ilsin degani (shu bobning 22, 27–oyatlarida ham bor).

6:1-2 *o‘zini ma’lum bir muddatga Egamizga nazr sifatida bag‘ishlash* — ibroniycha matndagi shu bobning 2-21–oyatlarida bu iboraning o‘rniga alohida bir so‘z ishlatilgan bo‘lib, bu so‘z Xudoga xizmat qilish uchun maxsus va’da bergan odamni bildiradi. Ba’zi insonlar maxsus va’da berib, o‘zlarini birmuncha vaqt Xudoning xizmatiga bag‘ishlar edilar. Ba’zi birovlar esa tug‘ilgan paytlaridanoq shu va’da orqali Xudoga bag‘ishlanganlar.

6:12 *ayb qurbonligi* — Levilar 5:14-19 ga qarang. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi QURBONLIK so‘zi ostida berilgan AYB QURBONLIGI iborasiga qarang.

6:27 *…Isroil xalqini Mening nomim bilan duo qilishsin* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *…Mening nomimni Isroil xalqi ustiga qo‘yishsin*. Isroil xalqini shu bobning 24-26–oyatlaridagi so‘zlar bilan duo qilishgan.

7:1 *Muso Muqaddas chodirni o‘rnatib bo‘lgan kuni…* — Chiqish 40:17-18 ga va o‘sha oyatlarning izohiga qarang.

7:2 *…xalqni ro‘yxatga olish uchun mas’ul bo‘lgan yo‘lboshchilar…* — 1:1-19 ga qarang.

7:13 *…og‘irligi 330 misqol bo‘lgan bitta kumush lagan, og‘irligi 180 misqol bo‘lgan bitta kumush tog‘oracha* — ibroniycha matnda *…og‘irligi 130 shaqal bo‘lgan bitta kumush lagan, og‘irligi 70 shaqal bo‘lgan bitta kumush tog‘oracha. Lagan va tog‘oracha*

Muqaddas chodirda ishlatiladigan shaqalga koʻra oʻlchangan (shu bobning 19, 25, 31, 37, 43, 49, 55, 61, 67, 73, 79–oyatlarida ham bor). Muqaddas chodirda ishlatilgan standart shaqal taxminan 11 grammga toʻgʻri keladi, demak, kumush laganning ogʻirligi taxminan 1,5 kiloga, kumush togʻorachaning ogʻirligi taxminan 800 grammga toʻgʻri keladi.

7:14 *25 misqol* — ibroniycha matnda *10 shaqal*, taxminan 110 grammga toʻgʻri keladi (shu bobning 20, 26, 32, 38, 44, 50, 56, 62, 68, 74, 80–oyatlarida ham bor).

7:16 *gunoh qurbonligi* — birortasi bilmay qilgan gunohi uchun Xudodan kechirim soʻrab keltirgan qurbonligi. Toʻliqroq ma'lumotga ega boʻlish uchun lugʻatdagi QURBONLIK soʻzi ostida berilgan GUNOH QURBONLIGI iborasiga qarang.

7:85 *…330 misqol…180 misqol…* — ibroniycha matnda *…130 shaqal…70 shaqal…*. Kumush laganning ogʻirligi taxminan 1,5 kiloga, kumush togʻorachaning ogʻirligi taxminan 800 grammga toʻgʻri keladi.

7:85 *…ogʻirligi ikki pudga yaqin edi* — ibroniycha matnda *…Muqaddas chodirda ishlatiladigan shaqalga koʻra ogʻirligi 2400 shaqal edi*. Muqaddas chodirda ishlatilgan standart shaqal taxminan 11 grammga toʻgʻri keladi, demak, kumush laganlar va togʻorachalarning umumiy ogʻirligi taxminan 27 kilo edi.

7:86 *…ogʻirligi 25 misqol edi* — ibroniycha matnda *…Muqaddas chodirda ishlatiladigan shaqalga koʻra ogʻirligi 10 shaqal edi*. Muqaddas chodirda ishlatilgan standart shaqal taxminan 11 grammga toʻgʻri keladi, demak, har bir oltin piyolaning ogʻirligi taxminan 110 grammga toʻgʻri keladi.

7:86 *300 misqol* — ibroniycha matnda *120 shaqal*, taxminan 1,4 kiloga toʻgʻri keladi.

7:89 *Ahd sandigʻi* — ibroniycha matnda *Guvohlik sandigʻi*. 4:5 izohiga qarang.

7:89 *ikki karub* — qanotli samoviy mavjudotlarning haykallari. Toʻliqroq ma'lumotga ega boʻlish uchun lugʻatdagi KARUB, KARUBLAR soʻziga qarang.

8:4 *…Egamiz Musoga koʻrsatgan namuna boʻyicha…* — Chiqish 25:31-40 ga qarang.

8:6 *…ularni pokla…* — diniy xizmatni lozim darajada bajarishga monelik qiladigan nopoklikdan tozalanish marosimi.

8:19 *Isroil xalqi Chodirga yaqin kelib qolganda, yuz beradigan kulfatdan levilar ularni himoya qiladi* — 1:53 ga qarang. Bu jumladagi chodir soʻzi Muqaddas xona va Eng muqaddas xonaga ishora qiladi.

9:1 *…Misrdan chiqqandan keyin, ikkinchi yilning birinchi oyida…* — ibroniy kalendarining Abib oyi nazarda tutilgan (Abib oyi Nison oyi deb ham ataladi). Hozirgi kalendarga koʻra, bu oy taxminan martning oʻrtasidan boshlanadi. Sahroda kitobidagi voqealar ikkinchi yilning ikkinchi oyidan boshlangani uchun (1:1 ga qarang), shu bobning 1-5–oyatlarida ikkinchi Fisih ziyofatining nishonlanishi bayon etilgan. Bu Fisih ziyofati 1–bobdagi xalq roʻyxatga olinishidan bir oy oldin nishonlangan. Birinchi Fisih ziyofati Xudo Isroil xalqini Misrdagi qullikdan ozod qilgan kechasi nishonlangan edi (Chiqish 12:1-42 ga qarang).

9:11 *ikkinchi oy* — 1:1 ning ikkinchi izohiga qarang.

9:11 *qurbonlik* — qoʻzi yoki uloqcha (Chiqish 12:3-5 ga qarang).

9:15 *Muqaddas chodir oʻrnatilgan kuni…* — Chiqish 40:17-18 ga koʻra, bu hodisa Isroil

xalqi sahroda turgan paytda, anig‘i, ikkinchi yilning birinchi oyida, oyning birinchi kunida sodir bo‘lgan edi.

9:15 *Chodir* — ibroniycha matnda *Chodir — Guvohlik chodiri*. 1:50 izohiga qarang.

10:6 *Karnayning qisqa sadosi yo‘lga chiqish kerakligini bildiradi* — g‘arb va shimoldagi qarorgohlarda turgan qabilalar sharq va janubdagi qabilalar singari, karnayning qisqa sadosini eshitgach, yo‘lga chiqishlari kerak edi.

10:11 *ikkinchi oy* — 1:1 ning ikkinchi izohiga qarang.

10:11 *Muqaddas ahd chodiri* — ibroniycha matnda *Guvohlik chodiri*. 1:50 izohiga qarang.

10:12 *...Isroil xalqi Sinay sahrosidan yo‘lga chiqdi* — Isroil xalqi Sinay tog‘ida o‘n bir oy davomida turgan edi (shu bobning 11–oyatiga va Chiqish 19:1-2 ga qarang).

10:12 *Poron cho‘li* — Sinay yarim orolining shimoli–sharqiy qismi nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin.

10:29 *Yatro* — ibroniycha matnda *Ruvel*, Yatroning yana bir ismi (Chiqish 3:1 ga qarang).

10:32 *Agar biz bilan birga borsangiz...* — Xo‘vovning Muso bilan borgan yoki bormagani ma’lum emas, ammo Hakamlar 1:16 da berilgan ma’lumotga ko‘ra u Muso bilan borgan, degan xulosa chiqarish mumkin.

10:33 *Egamizning muqaddas tog‘i* — Sinay tog‘iga ishora.

11:3 *Tavera* — bu nom ibroniychadagi *yonayotgan* so‘ziga ohangdosh.

11:4 *Isroil xalqi orasidagi qalang‘i–qasang‘ilar* — Chiqish 12:38 da tilga olingan begona xalqlar nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin (yana Qonunlar 29:11, Yoshua 8:35 ga qarang).

11:6 *manna* — Isroil xalqi Misrdan chiqqandan keyin to Kan’on yurtiga kirguncha, Xudo ularga yetkazib turgan maxsus yegulik. Manna, Shabbat kunidan tashqari, har kuni kechasi yerga yog‘ilardi, odamlar saharda turib, uni yig‘ib olishardi (Chiqish 16:13-35, Yoshua 5:12 ga qarang).

11:18 *...tayyorlanib poklaninglar...* — 8:6 izohiga qarang.

11:28 *Musoga yoshligidan xizmat qilib kelgan...* — yoki *Musoning tanlangan odamlaridan biri bo‘lgan....*

11:31 *dengiz* — Aqaba qo‘ltig‘i nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin.

11:31 *...ikki tirsak balandlikda uchib yurgan edi* — yoki *...ikki tirsak qalinlikda uyib tashlangan edi*. Ikki tirsak taxminan bir metrga to‘g‘ri keladi.

11:32 *oltmish savat* — ibroniycha matnda *o‘n ho‘mr*, taxminan 2200 litrga to‘g‘ri keladi.

11:34 *Xivrut–Xattavo* — ibroniychadagi ma’nosi *nafsi buzuq odamlarning qabrlari*.

12:1 *Habashistonlik* — ibroniycha matnda *Kushlik*. Kush degan joy Misrdan janubda bo‘lib, hozirgi Sudan va Efiopiya mamlakatlarining bir qismini o‘z ichiga olgan edi.

12:7 *Mening butun xalqim orasida ishonchlisi Musodir* — yoki *Xalqimni boshqarish uchun ishonib topshirgan odamim Musodir*.

12:10 *teri kasalligi* — bu ibora ibroniychada har xil teri kasalliklariga nisbatan

ishlatilgan so‘zning tarjimasidir. 5:2 izohiga qarang.

13:1 *Poron cho‘li* — 10:12 ning ikkinchi izohiga qarang.

13:9 *Xo‘sheya* — shu bobning 17–oyatiga qarang.

13:17 *…Xo‘sheyaning ismini o‘zgartirib, uni Yoshua deb atadi* — ibroniychadagi Xo‘sheya ismining ma’nosi *u qutqaradi*, Yoshua ismining ma’nosi esa *Egamiz qutqaradi*.

13:18 *Nagav cho‘li* — hozirgi Isroilning janubida, O‘lik dengizning janubi–g‘arbida joylashgan yerlar.

13:22 *Levo–Xomat* — yoki *Xomat dovoni*.

13:23 *Xevron shahri* — Quddusdan qariyb 32 kilometr janubi–g‘arbda joylashgan.

13:23 *…Onoq avlodidan kelib chiqqan…* — Onoq avlodi Isroil xalqidan avval Kan’onda yashagan, ular gavdasi ulkan, kuchli jangchilari bilan mashhur bo‘lgan xalq edi (shu bobning 33-34–oyatlariga va Qonunlar 1:28, 2:10-11, 20-21, 9:1-2 ga qarang).

13:25 *Eshko‘l* — ibroniychadagi ma’nosi *bir bosh uzum*.

13:27 *Kadesh* — Kadesh–Barna nomi bilan ham ma’lum bo‘lib, hozirgi Aqaba qo‘ltig‘ining shimoliy qirg‘og‘idan qariyb 145 kilometr shimoli–g‘arbda joylashgan voha.

13:28 *…sut va asal oqib yotibdi* — nihoyatda hosildor yerni bildiruvchi ibora. Mo‘l–ko‘l sut — mol uchun ko‘m–ko‘k yaylovlarning ko‘pligini bildiradi. Asal — xurmodan olinadigan quyuq, shirin murabboga ishora bo‘lishi mumkin. Murabboning mo‘lligi yaxshi hosil beradigan yerni bildiradi.

13:29 *Onoq avlodi* — shu bobning 23–oyatiga berilgan ikkinchi izohga qarang.

13:34 *ulkan pahlavonlar* — ibroniycha matnda *nefilim*. Bu so‘z haybatli va kuchli odamlarga nisbatan ishlatilgan (Ibtido 6:4 ga va o‘sha oyatning birinchi izohiga qarang).

14:8 *sut va asal oqib yotgan o‘sha yurt* — 13:28 izohiga qarang.

14:17 *Sen O‘zing aytgansan…* — Chiqish 34:6-7 ga qarang.

14:25 *Qizil dengiz* — ibroniycha matnda *Yom–Suf*, ma’nosi *Qamish dengizi*. Bu oyatdagi mana shu nom hozirgi Aqaba qo‘ltig‘iga (ya’ni Qizil dengizning shimoli–sharqidagi qo‘ltig‘iga) ishora qiladi.

14:28 *…ming‘irlab noliganlaringizni…* — shu bobning 2–oyatiga qarang.

14:34 *Menga qarshi chiqqanlarning holi ne kechishini…* — yoki *Sizlarga qarshi chiqsam holingiz ne kechishini…*.

14:45 *Xo‘rmax* — Kan’on yurtining janubiy qismida, Kadeshdan qariyb 80 kilometr shimoli–sharqda joylashgan shahar.

15:4-5 *ikki kosa* — ibroniycha matnda *chorak xin*, taxminan 1 litrga to‘g‘ri keladi (shu oyatda ikki marta ishlatilgan).

15:4-5 *to‘rt kosa* — ibroniycha matnda *efaning o‘ndan bir qismi*, taxminan 2 litrga to‘g‘ri keladi.

15:6 *uch kosa* — ibroniycha matnda *xinning uchdan bir qismi*, taxminan 1,3 litrga to‘g‘ri keladi (shu bobning 7–oyatida ham bor).

15:6 *sakkiz kosa* — ibroniycha matnda *efaning o‘ndan ikki qismi*, taxminan 4 litrga

to‘g‘ri keladi.

15:9 *to‘rt kosa* — ibroniycha matnda *yarim xin*, taxminan 2 litrga to‘g‘ri keladi (shu bobning 10–oyatida ham bor).

15:9 *o‘n ikki kosa* — ibroniycha matnda *efaning o‘ndan uch qismi*, taxminan 6 litrga to‘g‘ri keladi.

15:32 *…Shabbat kuni o‘tin terib yurgan bir odamni ushlab olishdi* — Xudoning qonuniga ko‘ra, Shabbat kuni ishlash taqiqlangan edi (Chiqish 31:12-17 ga qarang).

16:4 *…muk tushdi* — bu holat Muso Xudoga jon–jahdi bilan ibodat qilib, madad so‘rayotganini bildiradi.

16:7 *O‘shanda Egamiz kimni tanlab olganini, kim Unga tegishli ekanligini ko‘ramiz* — faqat ruhoniylar Muqaddas chodirda xushbo‘y tutatqi nazr qilishlari mumkin edi. Tutatqi nazr qilgan boshqa odam o‘lar edi. Tutatqi nazr qilib tirik qolgan odam Xudoning tanlagani edi.

16:13 *sut va asal oqib yotgan yurt* — 13:28 izohiga qarang.

16:30 *o‘liklar diyori* — ibroniycha matnda *Sheo‘l*. Qadimda Isroil xalqi *Sheo‘l*ni yer ostidagi tubsiz chuqurlik, marhumlar boradigan qorong‘i joy deb tushunardi (shu bobning 33–oyatida ham bor).

17:2 *…qabila…tayoq…* — bu oyatda so‘z o‘yini ishlatilgan. Ibroniychadagi *qabila* so‘zi *tayoq* ma’nosida ham ishlatiladi.

17:4 *Ahd sandig‘i* — ibroniycha matnda *Guvohlik* (shu bobning 10–oyatida ham bor), Ahd sandig‘ining yana bir nomi. 4:5 izohiga qarang.

17:7 *Muqaddas ahd chodiri* — ibroniycha matnda *Guvohlik chodiri* (shu bobning 8–oyatida ham bor). 1:50 izohiga qarang.

18:2 *Muqaddas ahd chodiri* — ibroniycha matnda *Guvohlik chodiri*. 1:50 izohiga qarang.

18:15 *harom hayvon* — Xudoga qurbonlik qilishga yaramaydigan hayvon. Halol va harom hayvonlar haqida to‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun Levilar 11:1-47 ga qarang.

18:16 *…besh bo‘lakdan kumush olinglar. Har bir kumush bo‘lakning og‘irligi 2,5 misqol bo‘lsin* — ibroniycha matnda *…besh shaqaldan ol. Har bir shaqalning og‘irligi Muqaddas chodirda ishlatiladigan shaqalning og‘irligiga teng kelib, 20 gera bo‘lsin*. 20 gera taxminan 11 grammga to‘g‘ri keladi, demak, har bir to‘ng‘ich o‘g‘il evaziga berilgan kumush taxminan 55 grammga to‘g‘ri keladi.

18:21 *ushr* — har qanday daromadning o‘ndan bir qismi. Levilar 27:30-33, Qonunlar 14:22-29, 26:12-13 ga qarang.

19:6 *issop o‘ti* — bu o‘rindagi ibroniycha so‘z mayda ko‘k gulli, barglari muattar hidli o‘simlikni bildiradi.

20:1 *Birinchi oy* — ibroniy kalendarining Abib oyi nazarda tutilgan (Abib oyi Nison oyi deb ham ataladi). Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan martning o‘rtasidan boshlanadi.

20:1 *Zin cho‘li* — O‘lik dengizning janubi–g‘arbida joylashgan.

20:1 *Kadesh* — 13:27 izohiga qarang.

20:3 *Biz ham…qirilib ketsak bo‘lmasmidi–ya!* — 16:41-49 ga qarang.

20:13 *Mariva* — ibroniychadagi ma’nosi *nolimoq*.

20:14 *Edom* — bu yurt O‘lik dengizning janubida joylashgan edi.

20:14 *Biz…sizning jigaringizmiz* — Isroil xalqi Yoqubdan, Edom xalqi esa Yoqubning akasi Esovdan kelib chiqqan edi.

20:17 *Shoh yo‘li* — bu yo‘l qadimgi paytlarda muhim savdo yo‘li edi. U O‘lik dengizning sharqida joylashgan bo‘lib, hozirgi Iordaniyaning hududini kesib o‘tar edi. Bu yo‘l Oramdagi Damashq shahrini Aqaba qo‘ltig‘ining shimoliy qirg‘og‘i bilan bog‘lar edi.

21:1 *Nagav cho‘li* — 13:18 izohiga qarang.

21:3 *Xo‘rmax* — ibroniychadagi ma’nosi *vayron qilish*.

21:4 *Qizil dengiz* — ibroniycha matnda *Yom–Suf*, ma’nosi *Qamish dengizi*. Bu oyatdagi mana shu nom hozirgi Aqaba qo‘ltig‘iga (ya’ni Qizil dengizning shimoli–sharqidagi qo‘ltig‘iga) ishora qiladi.

21:9 *Muso bronzadan ilonni yasab…* — ibroniychada *bronza* va *ilon* so‘zlari o‘zaro ohangdosh.

21:13 *Arnon soyligi* — Arnondagi soy g‘arb tomonga oqib, O‘lik dengizga quyiladi.

21:14 *“Egamizning jangnomasi” kitobi* — jang haqidagi qadimiy jangnoma dostonlaru qo‘shiqlar majmuasi bo‘lishi mumkin. Bu kitob hozirgi kungacha saqlanib qolmagan.

21:16 *Ber* — ibroniychadagi ma’nosi *quduq*.

21:18 *Saltanat hassalari* — bu maxsus hassa bo‘lib, shoh va hukmdorlarning hokimiyatini bildiruvchi ramz edi.

21:20 *Fisgax tog‘ tizmasi* — O‘lik dengizning shimoliy qirg‘og‘idan qariyb 15 kilometr sharqda joylashgan. Fisgax deb, Mo‘ab tekisligidan to g‘arbdagi Aborim tog‘larigacha cho‘zilgan tog‘ tizmasiga nisbatan aytilgan bo‘lishi mumkin. Bu tizmaning eng baland nuqtasi Navo tog‘ining cho‘qqisi edi (Qonunlar 34:1 ga qarang).

21:22 *Shoh yo‘li* — 20:17 izohiga qarang.

21:24 *Yavoq daryosi* — Iordan daryosining sharq tomonida joylashgan bu daryo O‘lik dengizdan qariyb 50 kilometr shimolda Iordan daryosiga quyiladi.

21:25 *Xashbon shahri* — Fisgax tog‘ tizmasidan qariyb 10 kilometr sharqda joylashgan.

21:29 *Xamo‘sh* — Mo‘ab xalqining xudosi.

21:33 *Bashan o‘lkasi* — Jalila ko‘lining shimoli–sharqida joylashgan.

22:36 *Ir shahri* — yoki *Mo‘ab yurtidagi shahar*.

22:41 *Bomo‘t–Baal* — ibroniychadagi ma’nosi *Baal sajdagohlari*.

23:7 *Oram* — bu yer Furot daryosi bo‘yida joylashgan bo‘lib, hozirgi Suriya mamlakatining shimoliy qismini va hozirgi Turkiyaning janubi–sharqiy qismini qamrab olardi (22:5 ga qarang).

23:14 *Fisgax tog‘ tizmasi* — 21:20 izohiga qarang.

23:23 *Yoqub nasliga…Isroilga qarshi folbinlik aslo oʻtmaydi* — yoki *Yoqub nasli orasida sehr–jodu yoʻq, Isroilda folbinlik yoʻq*.

23:28 *Piyor togʻi* — Fisgax togʻ tizmasidan qariyb 5 kilometr shimoli–gʻarbda joylashgan.

24:6 *palmazor* — yoki *vodiy*.

24:7 *Oʻgax* — Omolek xalqining shohi boʻlib, Omoleklar Isroil xalqining dushmani edilar (Chiqish 17:8-16, Qonunlar 25:17-19 ga qarang).

24:17 *Saltanat hassasi* — bu maxsus hassa boʻlib, shoh va hukmdorlarning hokimiyatini bildiruvchi ramz edi.

24:17 *chegaralar* — yoki *peshanalar*. Qadimiy yunoncha tarjimada *shahzodalar*.

24:17 *Shet xalqi* — Isroil xalqi Kan'on yurtini qoʻlga kiritishdan oldin oʻsha yurtning choʻllarida istiqomat qilgan xalq nazarda tutilgan boʻlishi mumkin.

24:17 *yerlar* — yoki *bosh suyaklar*.

24:18 *Seir* — Edom yurtiga qarashli boʻlgan togʻli yerlar.

24:19 *Ir* — yoki *shahar*.

24:20 *Omolek xalqi* — shu bobning 7–oyati izohiga qarang.

24:22 *Oshur xalqi* — Ossuriya xalqining ajdodi (shu bobning 24–oyatida ham bor).

24:24 *Kipr* — ibroniycha matnda *Kittim*, Kiprning qadimgi nomi.

25:1 *Shitim* — Oʻlik dengizning shimoli–sharqida, Moʻab tekisligida joylashgan.

25:5 *hakamlar* — maxsus yoʻlboshchilar. Ehtimol, ular butun qabilaga yoki qabilaning bir qismiga javobgar boʻlgan.

25:6 *Midiyonlik* — mazkur oyatda bu nom Iordan daryosining sharq tomonida yashaydigan, Moʻab xalqi bilan aralashib ketgan bir xalqqa ishora qiladi. Ularning ustidan Moʻab shohi hukmronlik qilgan boʻlishi mumkin (22:1-7 ga qarang).

26:5 *Isroil* — Yoqubning yana bir ismi (Ibtido 32:27-28 ga qarang).

26:9 *Koʻraxning izdoshlari Egamizga qarshi isyon koʻtarishganda…* — 16:1-35 ga qarang.

26:19-20 *…Gʻur va Oʻnan Kan'on yurtida olamdan oʻtgan edilar* — Ibtido 38:1-10 ga qarang.

26:42 *…Xushimdan Xushim…* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Shuxom*. Uning Xushim degan shakli Ibtido 46:23 dan olingan.

26:55 *…qur'a tashlanglar* — qur'a tashlashda yogʻoch boʻlaklari yoki toshlar ishlatilgan boʻlib, shu orqali Xudoning xohish–irodasi aniqlangan. Ba'zan odamlar qur'a tashlab, Xudodan biror ishni qanday yoki qachon qilish kerakligini soʻrashgan.

26:61 *Nadov va Abihu…nobud boʻlgan edilar* — 3:1-4 ga va Levilar 10:1-2 ga qarang.

26:65 *…Egamiz…aytgandi* — 14:26-35 ga qarang.

27:12 *Aborim tizmasi* — Oʻlik dengizning shimoliy qirgʻogʻidan sharqda joylashgan.

27:13 *Oʻsha yurtni koʻrganingdan keyin…olamdan oʻtasan* — Qonunlar 34:1-8 ga qarang.

27:14 *Mariva suvlari boʻyida…muqaddasligimni namoyon qilmadingizlar* — 20:1-13 ga

qarang.

27:14 *O‘sha Mariva suvlari* — Rafidim yonidagi Mariva emas, balki boshqa joydir (Chiqish 17:1-7 ga qarang).

27:18 *Unda Mening Ruhim bor* — ibroniycha matnda *Unda bir ruh bor*. Bu o‘rinda *ruh* so‘zi Xudoning Ruhiga ishora qilgan bo‘lishi mumkin. Eski Ahdda Xudoning Ruhi maxsus vazifani bajargan insonlarga, jumladan, yo‘lboshchilarga berilgan edi. Biroq ruh so‘zi yo‘lboshchilik vazifasi uchun zarur bo‘lgan layoqat va qobiliyatni bildirgan bo‘lishi ham mumkin. Qobiliyatlar Xudodan berilgan in’om bo‘lgani uchun ikkala variantning ham ma’nosi bir–biriga yaqin.

27:18 *Yoshuaga qo‘lingni qo‘y* — bu harakat Musoning yo‘lboshchilik vazifasi Yoshuaga topshirilishining ramzi edi.

27:21 *Elazar Urim orqali…irodamni bilib bersin* — ayrim hollarda ruhoniylar Xudoning xohishini bilish uchun Urim va Tummim degan muqaddas narsalardan foydalanishardi. Bu oyatda faqat Urim tilga olingan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun Chiqish 28:15 ning ikkinchi izohiga qarang.

28:5 *ikki kosa* — ibroniycha matnda *chorak xin*, taxminan 1 litrga to‘g‘ri keladi (shu bobning 7–oyatida ham bor).

28:5 *to‘rt kosa* — ibroniycha matnda *efaning o‘ndan bir qismi*, taxminan 2 litrga to‘g‘ri keladi.

28:9 *sakkiz kosa* — ibroniycha matnda *efaning o‘ndan ikki qismi*, taxminan 4 litrga to‘g‘ri keladi (shu bobning 12, 20, 28–oyatlarida ham bor).

28:12 *o‘n ikki kosa* — ibroniycha matnda *efaning o‘ndan uch qismi*, taxminan 6 litrga to‘g‘ri keladi (shu bobning 20, 28–oyatlarida ham bor).

28:14 *to‘rt kosa* — ibroniycha matnda *yarim xin*, taxminan 2 litrga to‘g‘ri keladi.

28:14 *uch kosa* — ibroniycha matnda *xinning uchdan bir qismi*, taxminan 1,3 litrga to‘g‘ri keladi.

28:14 *ikki kosa* — ibroniycha matnda *chorak xin*, taxminan 1 litrga to‘g‘ri keladi.

28:15 *kunda kuydiriladigan qurbonliklar* — shu bobning 1-8–oyatlariga qarang.

28:16 *Birinchi oy* — 20:1 ning birinchi izohiga qarang.

28:16 *Fisih ziyofati* — Isroil xalqining Misrdagi qullikdan ozod bo‘lishi munosabati bilan nishonlangan ziyofat (Chiqish 12:1-42 ga qarang).

28:23-24 *kunda ertalab kuydiriladigan qurbonlik* — shu bobning 1-8–oyatlariga qarang.

28:26 *Hosil bayrami* — ibroniycha matnda *Haftalar bayrami*, Hosil bayramining yana bir nomi. Bu bayram Fisih ziyofatidan keyin, 50 kun o‘tgach nishonlanadi (Levilar 23:15-16 ga qarang).

28:31 *kunda kuydiriladigan qurbonliklar* — shu bobning 1-8–oyatlariga qarang.

29:1 *Yettinchi oy* — ibroniy kalendarining Tishri oyi nazarda tutilgan (Tishri oyi Itanim oyi deb ham ataladi). Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan sentabrning o‘rtasidan boshlanadi.

29:3 *o‘n ikki kosa* — ibroniycha matnda *efaning o‘ndan uch qismi*, taxminan 6 litrga

to‘g‘ri keladi (shu bobning 9, 14–oyatlarida ham bor).

29:3 *sakkiz kosa* — ibroniycha matnda *efaning o‘ndan ikki qismi*, taxminan 4 litrga to‘g‘ri keladi (shu bobning 9, 14–oyatlarida ham bor).

29:4 *to‘rt kosa* — ibroniycha matnda *efaning o‘ndan bir qismi*, taxminan 2 litrga to‘g‘ri keladi (shu bobning 10, 15–oyatlarida ham bor).

29:6 *har oyning boshida va kunda kuydiriladigan qurbonliklar* — 28:1-15 ga qarang.

29:7 *Yettinchi oy* — shu bobning 1–oyati izohiga qarang.

29:11 *kunda kuydiriladigan qurbonliklar* — 28:1-8 ga qarang.

29:12 *Yettinchi oy* — shu bobning 1–oyati izohiga qarang.

29:16 *kunda kuydiriladigan qurbonlik* — 28:1-8 ga qarang.

29:38 *kunda kuydiriladigan qurbonlik* — 28:1-8 ga qarang.

30:15 *bir kun ichida* — yoki *bir necha kun ichida*.

31:2 *Isroil xalqi uchun Midiyonlardan qasos ol* — 25:1-18 oyatlarga va 25:6 izohiga qarang.

31:6 *muqaddas ashyolar* — Urim va Tummim, ruhoniyning liboslari va Ahd sandig‘i nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin (Chiqish 28:15 ning ikkinchi izohiga qarang). Finxaz jang paytida shu ashyolardan foydalanib, Xudodan yo‘l–yo‘riq va madad so‘ragan bo‘lishi mumkin.

31:8 *…Balomni ham qilichdan o‘tkazishdi* — Mo‘ab va Midiyon xalqlari bilan qilgan hamkorligi uchun Balom Isroil xalqining dushmani hisoblangan edi (25:1-5, 16-18, 31:16 ga va Qonunlar 23:4-5 ga qarang).

31:16 *…Piyor tog‘ida…* — 25:1-9 ga qarang.

31:23 *poklanish suvi* — 19:9 ga qarang.

31:50 *O‘zimizni Egamiz hukmidan himoya qilish uchun…* — qadimgi Isroilda odamlarni sanash xavfli hisoblanar edi (1 Shohlar 24–bobga qarang), chunki butun odamzod Xudoga tegishli, deb hisoblangan hamda sanash egalik ma’nosini bildirgan. Bundan tashqari, odamlarni sanash Xudoga ishonmaslikni ham bildirishi mumkin. Odamlarni sanash lashkarning soniga inonish va soxta xavfsizlik hissini vujudga keltirishi mumkin edi. Odamlarni sanash hukmga olib kelishi mumkin bo‘lgani uchun, mana shu parchada yo‘lboshchilar Xudoga nazrlar keltirib, o‘zlarining Xudoga bo‘lgan qo‘rquvlarini namoyon etganlar. Shu yo‘l bilan ular o‘zlarini himoya qilganlar.

31:52 *o‘n ikki pudga yaqin* — ibroniycha matnda *16.750 shaqal*, taxminan 190 kiloga to‘g‘ri keladi.

32:1 *Yazir va Gilad yerlari* — Iordan daryosining sharq tomonida joylashgan.

32:5 *…Iordan daryosining narigi tomoniga…* — ya’ni Iordan daryosining g‘arb tomoniga.

32:8 *Men otalaringizni…jo‘natganimda…* — 13:1-25 ga qarang.

32:17 *…qurollanib…* — qadimiy yunoncha va lotincha tarjimalardan. Ibroniycha matnda *…shoshilib…*.

32:33 *Manashe qabilasining yarmi* — Iordan daryosining sharq tomonida o‘rnashgan

qabilaning yarmi nazarda tutilgan (Yoshua 13:8, 29-31 ga qarang). Qabilaning ikkinchi yarmi Iordan daryosining g‘arb tomonidagi Kan’on yurtida o‘rnashgan edi (Yoshua 22:7 ga qarang).

32:41 *Yovir shaharlari* — ibroniycha matnda *Xavot–Yovir*, ma’nosi *Yovir shaharlari*.

33:3 *Birinchi oy* — 20:1 ning birinchi izohiga qarang.

33:8 *Qizil dengiz* — ibroniycha matnda *dengiz*. Bu oyatdagi mana shu nom ostida hozirgi Suets qo‘ltig‘i (ya’ni Qizil dengizning shimoli–g‘arbidagi qo‘ltiq) yoki Suets qo‘ltig‘i va O‘rta yer dengizi oralig‘ida joylashgan ko‘llardan biri nazarda tutilgan. Chiqish 14:10-31 dagi hodisalarning tafsilotiga ko‘ra, bu dengiz kattaligidan Isroil xalqiga to‘siq bo‘lgan, chuqurligidan Misr lashkari cho‘kib ketgan.

33:10 *Qizil dengiz* — ibroniycha matnda *Yom–Suf*, ma’nosi *Qamish dengizi*. Bu oyatdagi mana shu nom hozirgi Suets qo‘ltig‘iga (ya’ni Qizil dengizning shimoli–g‘arbidagi qo‘ltiqqa) ishora qiladi (shu bobning 11–oyatida ham bor).

33:11 *Sin sahrosi* — Sinay yarim orolidagi bu sahroning aynan qayerda joylashgani ma’lum emas.

33:14 *…Rafidimda…ichimlik suvi yo‘q edi* — Chiqish 17:1-7 ga qarang.

33:38 *beshinchi oy* — ibroniy kalendarining Av oyi nazarda tutilgan. Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan iyulning o‘rtasidan boshlanadi.

33:40 *Nagav cho‘li* — 13:18 izohiga qarang.

33:45 *Ivay–Aborim* — ibroniycha matnda bu nomning boshqa varianti *Iyim*.

33:47 *Aborim tog‘lari* — 27:12 izohiga qarang.

33:54 *…qur’a bo‘yicha…* — 26:55 izohiga qarang.

34:3 *O‘lik dengiz* — ibroniycha matnda *Tuz dengizi* (shu bobning 12–oyatida ham bor).

34:4 *Chayonlar dovoni* — ibroniycha matnda *Akrabim dovoni*, ma’nosi *chayonlar dovoni*.

34:5 *Misr chegarasidagi irmoq* — Sinay yarim orolining shimoli–sharqidagi Arish soyligi yoki Nil daryosining sharqiy irmog‘i nazarda tutilgan (yana Ibtido 15:18 va Yoshua 13:3, 15:4, 47 ga qarang).

34:7 *Xo‘r tog‘i* — shimolda joylashgan bu tog‘ 20:22 va 33:37-39 da tilga olingan Horun vafot etgan Xo‘r tog‘i emas.

34:8 *Levo–Xomat* — yoki *Xomat dovoni*.

34:11 *Jalila ko‘li* — ibroniycha matnda *Keneret ko‘li*, o‘sha vaqtda Jalila ko‘li va uning atrofidagi yerlar shu nom bilan ham atalardi.

34:13 *…qur’a tashlab…* — 26:55 izohiga qarang.

35:4 *1000 tirsak* — taxminan 450 metrga to‘g‘ri keladi.

35:5 *2000 tirsak* — taxminan 900 metrga to‘g‘ri keladi.

35:9-10 *…Iordan daryosining narigi tomoniga…* — ya’ni Iordan daryosining g‘arb tomoniga.

36:2 *…qur’a bo‘yicha…* — 26:55 izohiga qarang.

36:2 *Egamiz sizga…inimiz Zalofxodning mulkini qizlariga berishingizni aytgan edi* —

27:1-11 ga qarang.

36:4 *Qutlug‘ yil* — Isroil xalqi tabarruk deb bilgan yil. Shu yil davomida hamma sotib olingan mulk o‘zining asl egalariga qaytarib berilishi kerak edi (Levilar 25:8-55, 27:17-24 ga qarang). Ammo Qutlug‘ yilga oid bo‘lgan bu qonun–qoidalarni Zalofxodning qizlari vaziyatida qo‘llab bo‘lmas edi, chunki qizlar o‘z yerini sotgani sababli emas, balki turmushga chiqqanlari sababli ularning yeri o‘z qabilasidan ayirib olingan bo‘lardi.

QONUNLAR
(TAVROTNING BESHINCHI KITOBI)

Kirish

Qonunlar kitobi Tavrotning beshinchi kitobidir. Mazkur kitob Musoning Mo‘ab yurtida Isroil xalqiga so‘zlagan nutqlaridan tashkil topgan. Muso bu nutqlarini Isroil xalqining sahrodagi uzoq sayohatidan keyin so‘zlagan edi. O‘sha paytda Isroil xalqi Xudo va’da qilgan Kan’on yurtiga kirish arafasida edi.

Kitob tarkibidagi nutqlarning eng muhim mavzulari quyidagichadir:

Muso Isroil xalqiga qirq yil davomida bo‘lib o‘tgan eng muhim hodisalarni eslatadi. Shu bilan birga, xalqni Xudoga sodiq va itoatkor bo‘lishga undaydi. Muso ularga shunday deb uqtiradi: “Egangiz Xudo sizlarga sahroda g‘amxo‘rlik qilganini yodingizda tutinglar.”

Muso o‘nta amr haqida gapirar ekan, birinchi amrga alohida urg‘u berib, xalq faqat Xudoga sajda qilishi kerakligini ta’kidlaydi. Butlarga sajda qilishni esa qat’iyan man etadi. So‘ng Isroil xalqining hayotiga oid turli xil qonunlarga to‘xtalib o‘tadi.

Muso xalqqa Xudo bilan tuzilgan ahdning ma’nosini eslatadi. Xalqni ahd majburiyatlariga sodiq bo‘lishga chaqiradi. Xudoga itoatkorlik baraka keltirishini, itoatsizlik esa la’natga duchor qilishini uqtiradi.

Muso Xudo xalqining navbatdagi yo‘lboshchisi qilib Yoshuani tayinlaydi. So‘ng Xudoning sodiqligiga bag‘ishlangan bir kuyni ijro etadi, Isroil qabilalarini birma–bir duo qiladi. Muso Iordan daryosining sharq tomonidagi Mo‘ab yurtida olamdan o‘tadi.

Kitobning mohiyati shundan iboratki, Xudo O‘zi tanlagan sevimli xalqini qutqardi, ularga baraka berdi. Isroil xalqi buni yodda tutishi, Xudoni sevib, Unga itoat etishi lozim edi. Shundagina ular omon qoladilar va farovon hayotga ega bo‘ladilar.

Mazkur kitobning 6:4-5–oyatlari muhim hisoblanadi. Iso Masih bu oyatlardagi quyidagi so‘zlarni amrlarning eng buyugi deb aytadi: “Ey Isroil, quloq sol! Egamiz Xudo tanho Egadir. Egangiz Xudoni butun qalbingiz bilan, jonu dilingiz bilan, butun vujudingiz bilan sevinglar.”

1–BOB

Sinay tog‘idagi voqealarning qayd qilinishi

1 Mazkur kitobda Musoning Isroil xalqiga aytgan nutqi bayon qilingan. Ushbu nutqini u Iordan daryosining sharq tomonidagi cho‘lda* aytgan edi. Bu cho‘l Suf degan joyning qarshisida joylashgan bo‘lib, uning bir tomonida Poron shahri, qarama–qarshi tomonida Tofal, Lobon, Xazero‘t va Dizaxab* shaharlari bor edi. 2 (Sinay tog‘idan* Kadesh–Barnagacha Seir tog‘lari bo‘ylab* o‘n bir kunlik yo‘ldir*.) 3 Isroil xalqi Misrdan chiqqandan keyin, qirqinchi yilning o‘n birinchi oyi* birinchi kunida Muso ularga

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

Egamizning amr etgan so‘zlarini aytdi. [4] Bundan oldin u Xashbonda hukmronlik qilgan Amor xalqining shohi Sixo‘nni hamda Ashtaro‘t va Edrey shaharlarida hukmronlik qilgan Bashan shohi O‘gni mag‘lub qilgan edi. [5] Iordanning sharq tomonida, Mo‘ab yurtida Muso bu qonunlarni Isroil xalqiga quyidagicha tushuntira boshladi:

[6] Egamiz Xudo Sinay tog‘ida bizga shunday dedi: “Bu tog‘da ancha vaqt turib qoldingizlar. [7] Endi yo‘lga tushinglar, Amor xalqining qirlariga va ularga qo‘shni bo‘lgan Kan’on xalqining yurtiga boringlar. Bu o‘lkaga Iordan vodiysi*, qirlar, g‘arbdagi qir etaklari, Nagav cho‘li*, O‘rta yer dengizining qirg‘og‘i, Lubnon va buyuk Furot daryosigacha bo‘lgan yerlar kiradi. [8] Mana shu yerlarni sizlarga beryapman. Boringlar, o‘sha yurtni mulk qilib olinglar. Men, Egangiz, bu yerlarni ota–bobolaringiz Ibrohim, Is’hoq va Yoqubga hamda ularning avlodlariga beraman, deb ont ichganman.”

Muso hakamlarni tayinlaydi

[9] Biz Sinay tog‘ida turgan paytimizda men sizlarga shunday degan edim: “Bir o‘zim og‘irligingizni ko‘tara olmayman. [10] Egangiz Xudo sizlarni ko‘paytirdi. Mana, bugun sizlar osmondagi yulduzlarday son–sanoqsiz bo‘ldingiz. [11] Ota–bobolaringizning Xudosi — Egangiz O‘z va’dasiga muvofiq sizlarni yana ming karra ko‘paytirsin, sizlarga baraka bersin. [12] Bir o‘zim sizning og‘irligingizni, muammolaru janjallaringizni ko‘tara olarmidim?! [13] Endi har bir qabilangizdan dono, aql–idrokli va obro‘li kishilarni tanlab olinglar. Men o‘sha odamlarni sizlarga yo‘lboshchilar qilaman.”

[14] Sizlar menga: “Rejangiz yaxshi”, deb javob berdingizlar.

[15] Shunda men dono va obro‘li qabila yo‘lboshchilaringizni ustingizdan nazoratchi qilib tayinladim. Ularga mingboshi, yuzboshi, ellikboshi, o‘nboshi va turli nazoratchilar vazifalarini bo‘lib berdim. [16] O‘sha vaqtda hakamlaringizga shunday deb buyurgan edim: “Birodarlaringiz orasidagi muammolarga yaxshilab quloq soling. Hukmingiz to‘g‘ri bo‘lsin, Isroil xalqi orasidagi muammolarni hamda qondoshingiz bilan musofir orasidagi muammolarni to‘g‘ri hukm qiling. [17] Hukmda tarafkashlik qilmang. Kattaga ham, kichikka ham birday quloq soling. Odamlardan qo‘rqmang, chunki hukm Xudonikidir. O‘zingiz yecha olmagan masalalarni menga olib keling, ularni o‘zim yechaman.”

[18] Qilishingiz lozim bo‘lgan hammasini o‘shanda sizlarga aytdim.

Isroil xalqi Kan’on yurtiga ayg‘oqchilarni yuboradi

[19] Keyin Egamiz Xudo buyurganiday biz Sinay tog‘idan ketdik. O‘zlaringiz ko‘rgan keng va vahimali sahro orqali Amor xalqining qirlariga boradigan yo‘ldan yurib, Kadesh–Barnaga bordik. [20] Shundan keyin men sizlarga aytdim: “Mana, Egamiz Xudo bizga berayotgan Amor xalqining qirlariga yetib keldik. [21] Qaranglar, mana shu yerlarning hammasini Egangiz Xudo sizlarga berdi. Qani, endi boringlar, ota–bobolaringizning Xudosi — Egangizning va’dasiga muvofiq o‘sha yerni qo‘lga kiritinglar. Qo‘rqmanglar, vahimaga tushmanglar.”

[22] Sizlar hammangiz oldimga kelib aytdingizlar: “Bormasimizdan oldin odamlar yuboraylik. Ular o‘sha yurtni tekshirsin. Biz boradigan yo‘l va bosib oladigan shaharlar haqida xabar olib kelishsin.”

[23] Rejangiz menga ma’qul bo‘ldi. Orangizdan o‘n ikki kishini, har bir qabiladan bittadan odamni tanlab oldim. [24] Ular qirlarga chiqdilar, Eshko‘l* vodiysigacha yetib borib, o‘sha yurtni tekshirdilar. [25] U yurtning mevalaridan bizga olib keldilar. “Egamiz

Xudo bizga bergan yurt yaxshi ekan", deb aytdilar.
26 Lekin sizlar bu yurtga borishdan bosh tortdingizlar, Egangiz Xudoning amriga
qarshi chiqdingizlar. 27 Chodirlaringizda ming'irlab shunday dedingiz: "Egamiz bizni
yomon ko'radi. U bizni Amor xalqining qo'liga berib, o'ldirish uchun Misrdan olib chiqdi.
28 Qayerga ketyapmiz o'zi?! Birodarlarimiz yuragimizni yorib bo'ldi–ku! U yerdagi
odamlar bizdan kuchliroq, bo'ylari ham balandroq ekanini aytishdi. Ularning ulkan
shaharlari osmono'par devorlar bilan o'ralgan ekan! U yerda hatto Onoq avlodini* ham
ko'rishgan ekan."
29 Shunda men sizlarga dedim: "Vahimaga tushmanglar, ulardan qo'rqmanglar.
30 Egangiz Xudoning O'zi oldingizda yuradi. Ko'zingiz oldida Misrda jang qilganday,
sizlar uchun jang qiladi. 31 Egangiz Xudo sizlarga sahroda g'amxo'rlik qilganini o'zingiz
ko'rdingiz. U sizlarni shu yergacha, xuddi ota o'g'lini opichlaganday, butun yo'l bo'yi
ko'tarib keldi. 32 Shunda ham sizlar Egangiz Xudoga ishonmayapsiz. 33 U esa qarorgoh
qurishingiz uchun joy qidirib, oldingizda yurardi. Yuradigan yo'lingizni ko'rsatib,
kechasi ustun shaklidagi alanga ichida, kunduzi esa ustun shaklidagi bulut ichida
borardi*."

Egamiz Isroil xalqini jazolaydi

34 Egamiz noliganingizni eshitib, g'azablandi. U ont ichib dedi: 35 "Men ota–
bobolaringizga va'da qilgan hosildor yurtga bu qabih naslning birontasi ham kirmaydi.
36 O'sha yurtni faqat Yafunax o'g'li Xolib ko'radi. U Menga sodiq qoldi. Shuning uchun
qadami yetgan yerni unga va uning avlodiga beraman." 37 Sizlarni deb Egamiz mendan
g'azablanib* aytdi: "Sen ham u yerga kirmaysan. 38 U yurtga yordamching Nun o'g'li
Yoshua kiradi. Unga dalda ber. Yurtni xalqqa mulk qilib olib beradigan o'shadir.
39 O'shanda sizlar, bolalarimiz dushmanlarga o'lja bo'ladi, deb aytgan edingizlar.
Bolalaringiz hanuz yaxshi bilan yomonning farqiga bormaydi, ammo yurtga kiradigan
o'shalardir. Men u yurtni bolalaringizga beraman. Ha, ular o'sha yurtni egallab oladilar.
40 Sizlar esa sahroga qaytinglar! Qizil dengizga* boradigan yo'ldan ketinglar."
41 Egamizning bu gaplaridan keyin, sizlar menga shunday dedingizlar: "Egamizga
qarshi gunoh qildik. Endi borib, Egamiz Xudo bizga amr qilganidek, jang qilamiz." Sizlar,
o'sha qirlarni qo'lga kiritish oson bo'ladi, deb o'ylab, jang qurollaringizni oldingiz.
42 Lekin Egamiz menga shunday dedi: "Ularga ayt, borishmasin. Jang qilib
yurishmasin. Axir, Men ular bilan bo'lmayman. Aks holda, dushmanlari ularni mag'lub
qiladi." 43 Sizlarga shunday desam ham, menga quloq solmadingizlar. Egamizning
amriga qarshi chiqib, o'zboshimchalik bilan qirlarga chiqdingizlar. 44 O'sha qirlarda
yashaydigan Amor xalqi qarshilik ko'rsatib, sizlarni arilar kabi, quvdilar. Sizlarni Seirda*
tor–mor qildilar. Xo'rmaxgacha ta'qib qilib, qirib tashladilar. 45 Omon qolganingiz qaytib
kelib, Egamizga faryod qildingizlar. Lekin Egamiz na nolangizga quloq soldi, na sizlarga
e'tibor berdi.
46 Shunday qilib, Kadesh–Barnada ancha turdingiz, birmuncha vaqt u yerda qolib
ketdingiz.

2–BOB

Sahroda o'tgan yillar

1 Egamiz menga aytganiday, biz Qizil dengiz* tomondagi sahroga qaytdik. Seir

tog‘lari* atrofida ko‘p vaqt yurdik.
2 Egamiz menga shunday dedi: 3 “Bu qirlar atrofida shuncha aylanib yurganingiz
yetadi. Endi shimol tomonga boringlar. 4 Bu xalqqa Mendan shunday buyruq bergin:
«Seir yurtida yashaydigan birodarlaringiz* — Esov avlodining yerlaridan o‘tasizlar. Ular
sizdan qo‘rqishadi. Ammo ehtiyot bo‘linglar, 5 ular bilan jang qilmanglar. Men sizlarga u
yerning bir qarichini ham bermayman, chunki Men Seir tog‘larini Esov avlodiga mulk
qilib berganman. 6 Ulardan ovqatni kumushga sotib olib yenglar, suvni ham kumushga
sotib olib ichinglar. 7 Men, Egangiz Xudo, har bir ishingizda sizlarga baraka berdim. Shu
bepoyon sahroda yurganingizda sizlarni himoya qildim. Qirq yildan beri Men sizlar
bilan birgaman, sizlar hech qanday kamchilik ko‘rmadingizlar.»”
8 Shunday qilib, biz Seirda yashovchi birodarlarimiz — Esov avlodining yeridan o‘tib
ketdik. Elet va Ezyo‘n–Geberdan* Iordan vodiysiga* ketgan yo‘ldan yurdik. So‘ngra
Mo‘ab cho‘li tomon burilib ketdik. 9 Shunda Egamiz menga dedi: “Mo‘abliklar bilan
janjallashib, urush boshlamanglar. Men sizlarga ularning yeridan mulk bermayman,
chunki Or* hududini Men Lut avlodiga* mulk qilib berganman.”
10 (Oldin u yerda Eyim xalqi yashagan edi. Ular ko‘pchilik bo‘lib, kuchli, Onoq avlodi
singari baland bo‘yli xalq edi. 11 Eyim xalqi va Onoq avlodlari, odatda, Rafa xalqi* deb
atalardi. Ammo Mo‘abliklar ularni Eyim xalqi deb atashardi. 12 Seirda ancha oldin Xorim
xalqi yashagan. Ammo Esov avlodi* o‘sha yerlarni ulardan tortib olgandi. Isroil xalqi
Egamiz mulk qilib bergan yurtda xalqlarni yo‘q qilganday, Esov avlodi ham Xorim
xalqini yo‘q qilib, ularning yerlariga joylashib olgan edi.)
13 Egamiz: “Qani, endi otlaninglar, Zarad soyligidan* o‘tinglar”, — deb amr berdi. Biz
Zarad soyligidan o‘tdik. 14 Kadesh–Barnadan chiqishimizga va Zarad soyligidan
o‘tishimizga 38 yil ketdi. Egamiz ont ichib aytganiday, bu vaqt oralig‘ida o‘sha naslning
urushga yaroqli bo‘lgan odamlari olamdan o‘tib ketdi. 15 Darhaqiqat, Egamiz ularga
qarshi O‘z qo‘lini ko‘tarib, qarorgohdagi hamma urushga yaroqlilarni qirib tashladi.
16 Urushga yaroqli bo‘lganlarning hammasi o‘lib, xalq orasidan yo‘q bo‘lgandan
keyin, 17 Egamiz menga shunday dedi: 18 “Bugun Or shahridan o‘tasizlar, Mo‘ab yurtining
shimoliy chegarasini kesib, 19 Ommon xalqining yeriga yaqinlashasizlar. Lekin ular bilan
janjallashib, urush boshlamanglar. Sizlarga ularning yeridan bir parcha ham
bermayman. Bu yerni Men Lut avlodiga* mulk qilib berganman.”
20 (Ilgarilari bu yer Rafa xalqining yurti edi. Bu yerda Rafa xalqi yashagan edi.
Ommon xalqi esa ularni Zamzum xalqi deb atashardi. 21 Bu xalq kuchli, ko‘p bo‘lib, Onoq
avlodi singari baland bo‘yli edi. Ammo Egamiz ularni yo‘q qildi. Ommon xalqi ularning
yerini qo‘lga kiritib, o‘sha yerga joylashib olgandi. 22 Seirda yashayotgan Esov avlodi
uchun ham Egamiz xuddi shunday qilgan edi. Xorim xalqini Egamiz yo‘q qildi. Esov
avlodi Xorim xalqining yerini qo‘lga kiritib, ularning o‘rniga o‘zlari joylashib olishdi. Ular
hozirgacha o‘sha yerda yashaydi. 23 Avim xalqi esa janubdagi G‘azogacha bo‘lgan
qishloqlarda yashardi. Ammo Xafto‘rdan kelgan Xafto‘r xalqi* ularni yo‘q qilib,
o‘rinlariga o‘zlari joylashib olishgandi.)

Isroil xalqi shoh Sixo‘nni yengadi

24 Biz Mo‘ab yurtidan o‘tganimizdan keyin, Egamiz shunday dedi: “Endi otlanib,
yo‘lga tushinglar, Arnon soyligidan* o‘tinglar. Men Amor xalqining Xashbonda
yashaydigan shohi Sixo‘nni va uning yerini sizlarning qo‘lingizga beraman. Unga hujum

qilib, jang boshlang, uning yurtini egallab oling. 25 Men shunday qilamanki, bugundan
boshlab butun yer yuzidagi xalqlar sizlardan qo‘rqib, vahimaga tushadigan bo‘lishadi.
Nomingizni eshitganlar sizlardan qo‘rqqanidan qaltiraydigan bo‘ladi.”
26 Shundan keyin men Kadamo‘t cho‘lidan Xashbon shohi Sixo‘nga choparlar orqali
quyidagicha do‘stona gaplarni yetkazdim: 27 “Bizga yurtingiz orqali o‘tib ketishga ijozat
bersangiz. O‘ngga ham, chapga ham qayrilmay, to‘g‘ri yo‘ldan ketamiz. 28 Ovqatni biz
sizdan kumushga sotib olib yeymiz, suvni ham sizdan sotib olib ichamiz, faqat piyoda
yurib o‘tishimizga ruxsat bersangiz bo‘ldi. 29 Seirda yashayotgan Esov avlodi ham, Or
shahrida yashayotgan Mo‘abliklar ham ijozat bergan edi. Ularning yerlaridan o‘tib
keldik. Ular singari, siz ham ijozat bering, yeringizdan o‘tib ketaylik. Iordandan o‘tib,
Egamiz Xudo bizga beradigan yurtga yetib olaylik.”
30 Biroq Xashbon shohi Sixo‘n yeridan o‘tib ketishimizga ruxsat bermadi. Sizlar
bugun yashab yurgan yerni qo‘lga kiritishingiz uchun Egangiz Xudo Sixo‘nning yuragini
tosh qilib, o‘jar qilib qo‘ygandi.
31 Egamiz menga shunday dedi: “Men Sixo‘nni va uning yurtini sening qo‘lingga
beryapman. Uning yurtini zabt eta boshla.” 32 Sixo‘n jamiki lashkarini boshlab, biz bilan
jang qilgani Yaxaz shahriga chiqdi. 33 Ammo Egamiz Xudo uni bizning qo‘limizga berdi.
Sixo‘nni, uning jamiki lashkarini, farzandlarini yo‘q qilib tashladik. 34 Sixo‘nning hamma
shaharlarini bosib olib, birontasini ham qoldirmay vayron qildik. Erkaklari, ayollari va
bolalaridan birontasini ham tirik qoldirmadik. 35 Mag‘lub qilgan shaharlarimizdan faqat
chorva va boyliklarni o‘zimizga o‘lja qilib oldik. 36 Arnon soyligining chetida joylashgan
Aror shahridan hamda soylikdagi* shahardan tortib, to Giladgacha bo‘lgan birorta
shahar bizning kuch–qudratimizga dosh berolmadi. Chunki Egamiz Xudo hammasini
bizning qo‘limizga bergan edi. 37 Ammo biz Yavoq daryosi* bo‘yidagi Ommon xalqining
yerlariga va qirlardagi ularning shaharlariga hujum qilmadik. Chunki Egamiz Xudo bizga
u yerlarni bosib olishni man qilgandi.

3–BOB

Isroil xalqi shoh O‘gni mag‘lub qiladi

1 Keyin biz Bashan o‘lkasiga yo‘l oldik. Bashan shohi O‘g o‘zining jamiki lashkarini
boshlab, Edrey shahri yaqinida biz bilan jang qilgani chiqdi. 2 Shunda Egamiz menga
dedi: “O‘gdan qo‘rqma. Men uning o‘zini, lashkarini va butun yurtini sening qo‘lingga
berganman. Sen O‘gning boshiga Xashbonda hukmronlik qilgan Amor xalqining shohi
Sixo‘nning kunini solasan.”
3 Egamiz Xudo Bashan shohi O‘gni va uning butun lashkarini bizning qo‘limizga
berdi. Biz ularning hammasini bitta qoldirmay qirib tashladik. 4 Uning hamma
shaharlarini — oltmishta shahrini oldik. Bashandagi O‘gning shohligiga kirgan butun
Argob hududini qo‘lga kiritdik, biz olmagan birorta ham shahar qolmadi. 5 Bu
mustahkam shaharlarning hammasi baland devorlar bilan o‘ralgan, darvozalari
tambalangan edi. Bulardan tashqari, devor bilan o‘ralmagan ko‘p qishloqlar ham bor
edi. 6 Biz Xashbon shohi Sixo‘nning shaharlarini qanday vayron qilgan bo‘lsak, O‘gning
shaharlarini ham shunday vayron qildik. Bu shaharlarni erkagu ayollari va bolalari bilan
birga yo‘q qildik. 7 Hamma chorva va shaharlardagi o‘ljani o‘zimizga oldik.
8 Shunday qilib, o‘shanda biz Iordan daryosining sharq tomonida hukmronlik qilgan

ikkala Amor shohini mag‘lub qildik. Janubdagi Arnon soyligidan* to shimoldagi Xermon tog‘igacha* cho‘zilgan yerlarini qo‘lga kiritdik. 9 (Xermon tog‘ini Sidonliklar — “Siriyon”, Amor xalqi — “Sanir” deb atashadi.) 10 Biz Bashanda hukmronlik qilgan shoh O‘gning butun shohligini, yassi tepalikdagi hamma shaharlarini, sharqdagi Salko va Edreygacha bo‘lgan butun Gilad va Bashan o‘lkalarini qo‘lga kiritdik.

11 (Rafa xalqidan* birgina Bashan shohi O‘g tirik qolgan edi. Uning yotadigan o‘rni* temirdan* yasalgan bo‘lib, odatdagi o‘lcham bo‘yicha uzunligi to‘qqiz tirsak, kengligi esa to‘rt tirsak* edi. Uning o‘rni hozir ham* Ommon yurtining Rabba shahridadir.)

Iordan daryosidan sharqqa o‘rnashgan qabilalar

12 Biz o‘sha yerlarni qo‘lga kiritdik. Shunda men Ruben va Gad qabilalariga Arnon soyligi bo‘yidagi Aror shahrining shimolidagi hududni, Gilad qirlarining yarmisini va atrofdagi qishloqlarni berdim. 13 Manashe qabilasining yarmiga* esa Giladning qolgan qismini va O‘gning shohligi bo‘lgan butun Bashanni berdim. (Bashan o‘lkasidagi Argob hududi Rafa xalqining yurti hisoblanardi. 14 Manashe qabilasidan bo‘lgan Yovir butun Argob hududini qo‘lga kiritdi. Bu hudud Gashur va Maxo yurtlarigacha cho‘zilgan edi. Yovir bu joyga o‘zining nomini berdi. O‘sha joylar bugungacha* Yovir qishloqlari* deb ataladi.)

15 Manashe qabilasining Moxir urug‘iga Giladni berdim. 16 Ruben va Gad qabilalariga Giladdan to Arnon soyligigacha cho‘zilgan yerlarni berdim. Arnon soyligining o‘rtasi ikkala qabilaning chegarasi edi. Ularning yeri Ommon yurtining chegarasini tashkil qilgan Yavoq daryosigacha* cho‘zilgan edi. 17 Ularning g‘arbdagi yerlari esa Iordan daryosi bo‘ylab, shimoldagi Jalila ko‘lidan* to janubdagi O‘lik dengizgacha* va sharqdagi Fisgax tog‘ tizmasining yon bag‘irlarigacha cho‘zilgan edi.

18 O‘shanda sizlarga shunday buyurdim: “Egangiz Xudo bu yerni sizlarga mulk qilib berdi. Hamma sipohlaringiz qurollanib, daryodan kechib o‘tsin. Ular birodarlaringiz bo‘lgan Isroil xalqini boshlab borsin. 19 Faqat xotinlaringiz va farzandlaringiz men sizlarga bergan shaharlarda qolsin. Bilaman, mollaringiz juda ko‘p, ular ham shaharlaringizda qolaversin. 20 Egamiz sizlarga tinchlik ato qilganday, birodarlaringizga ham tinchlik ato qilgandan keyin, ular Iordanning narigi tomonidagi, Egangiz Xudo berayotgan yerni egallab olgandan keyin, hammangiz men sizlarga bergan mana shu yerga qaytib kelsangiz bo‘ladi.”

21 O‘shanda Yoshuaga aytdim: “Egang Xudo o‘sha ikkala shohni nima qilganini o‘z ko‘zing bilan ko‘rding. Sen bosib o‘tadigan barcha shohliklarni ham Egamiz xuddi shunday ahvolga soladi. 22 Ulardan qo‘rqma. Sizlar uchun jang qiladigan Egang Xudodir.”

Musoga Xudo Kan’on yurtiga kirish uchun ijozat bermaydi

23 Shundan keyin men Egamga yolvordim: 24 “Yo Egam Rabbiy! Men, qulingga O‘z buyukligingva qudratingni endigina ko‘rsata boshlading. Samoda ham, yerda ham Sening ajoyibotlaringni, buyuk ishlaringni qila oladigan boshqa xudo yo‘q! 25 Ijozat ber, men Iordan daryosidan o‘tay. Daryoning narigi tomonidagi hosildor yurtni, o‘sha chiroyli qirlarni va Lubnonni ko‘ray.”

26 Lekin Egamiz sizlar tufayli mendan g‘azablangani uchun* iltijolarimga quloq solmadi. U menga shunday dedi: “Bo‘ldi qil! Menga bu haqda boshqa gapirma. 27 Fisgax tog‘ tizmasining cho‘qqisiga* chiq, g‘arbga, shimolga, janubga va sharqqa qara. Yaxshilab qarab ol, chunki sen mana shu Iordan daryosidan kechib o‘tmaysan. 28 Yoshuani

xizmatga tayinla. Unga dalda berib, ruhlantir. Bu xalqni daryoning narigi tomoniga Yoshua boshlab boradi. Uning boshchiligida bu xalq sen ko‘radigan o‘sha yerni egallaydi.”

29 Shunday qilib, biz Bayt–Piyor qarshisidagi vodiyda to‘xtadik.

4–BOB

Muso Isroil xalqini Xudoga itoat qilishga undaydi

1 Endi, ey Isroil, men sizlarga farmonlar va qonun–qoidalarni o‘rgataman. Ularga rioya qilinglar. Shunda yashaysizlar, ota–bobolaringizning Xudosi — Egangiz sizlarga berayotgan yerni mulk qilib olasizlar. 2 Men sizlarga aytayotgan amrlarga hech narsa qo‘shmanglar, hech narsa olib ham tashlamanglar. Men sizlarga berayotgan Egangiz Xudoning amrlariga rioya qilinglar. 3 Egamiz Piyor tog‘ida nimalar qilganini* o‘z ko‘zlaringiz bilan ko‘rdingizlar. Piyordagi Baalga sajda qilgan hammani Egangiz Xudo yo‘q qilgan edi. 4 Egangiz Xudoga sodiq bo‘lganlar esa bugun ham tirikdir.

5 Egam Xudo amr qilganday, sizlarga farmonlarni va qonun–qoidalarni o‘rgatdim. Mulk qilib olayotgan o‘sha yurtda bularga rioya qilinglar. 6 Mana shu farmonlar va qonun–qoidalarni bitta qoldirmay bajaringlar, toki sizlarning aql–idrokingizni boshqa xalqlar ko‘rsin. Ular bu qonunlar haqida eshitib: “Ha, haqiqatan bu buyuk xalq dono, aql–idroklidir”, deb aytsin.

7 Egamiz Xudoga har safar iltijo qilganimizda U bizga yaqindir. Qaysi buyuk xalqning shunday xudosi bor?! 8 Bugun men sizlarga farmonlar va qonun–qoidalar beryapman. Qaysi buyuk xalqning shunday adolatli qonun–qoidalari bor?! 9 Faqat hushyor bo‘linglar. Ko‘zlaringiz bilan ko‘rganlaringizni unutmay, bir umr yuragingizda saqlanglar. Bularni o‘g‘illaringizga, nevara–chevaralaringizga ham aytib beringlar. 10 Sizlar Sinay tog‘ida*, Egangiz Xudo oldida turgan kuningizni eslanglar. O‘sha kuni Egamiz menga aytgandi: “Mening huzurimga xalqni yig‘. Ular so‘zlarimni eshitib, yer yuzida butun umrlari davomida Mendan qo‘rqishni o‘rgansinlar, bolalariga ham o‘rgatsinlar.”

11 Sizlar yaqin kelib, tog‘ning etagida turdingizlar. Tog‘ esa osmongacha ko‘tarilgan olovga burkanib, qop–qora bulutlar bilan qoplangan edi. 12 Egamiz olov ichidan sizlarga gapirdi. Sizlar Uning so‘zlarini eshitdingizlar, qiyofasini esa ko‘rmadingizlar. Faqat Egamizning ovozi eshitilar edi, xolos. 13 U O‘z ahdini sizlarga ayon qilib, bu ahdni — o‘nta amrni bajaringlar, deb farmon berdi. Egamiz ularni ikki tosh lavhaga yozdi. 14 Iordanni kechib, mulk qilib oladigan yurtda bajarishingiz kerak bo‘lgan farmonlar va qonun–qoidalarni men sizlarga o‘rgatishimni Egamiz buyurdi.

Butparastlik haqida ogohlantirish

15 Sinay tog‘ida Egamiz olov ichidan sizlarga gapirganda, sizlar biron qiyofa ko‘rmadingizlar. Shuning uchun ehtiyot bo‘linglar. 16 Yana yo‘ldan ozib, o‘zingizga erkak yo ayol qiyofasidagi butni, 17 yerda yashaydigan jonivor yo osmonda uchib yuruvchi qush qiyofasidagi butni, 18 yerda sudralib yuruvchi jonivor yoki suvdagi baliq qiyofasidagi hech qanday butni yasamanglar. 19 Shuningdek, osmonga qarab, quyosh, oy va yulduzlarni, jamiki samoviy jismlarni ko‘rib vasvasaga tushmanglar, ularga sig‘inmanglar, xizmat qilmanglar. Axir, Egamiz Xudo bularni dunyoda yashovchi barcha xalqlar uchun berdi. 20 Sizlarni esa Egamiz O‘zi uchun tanlab oldi. Bugungiday Uning xalqi bo‘lishingiz uchun sizlarni Misrdan — temir o‘choq ichidan olib chiqdi. 21 Egamiz

sizlarning dastingizdan mendan g‘azablandi*: “Men Isroil xalqiga mulk qilib beradigan Iordanning narigi tomonidagi o‘sha hosildor yurtga sen kirmaysan”, — deb qasam ichdi.
22 Men Iordanning narigi tomoniga o‘tolmayman, mana shu yerda vafot etaman. Sizlar
esa Iordandan o‘tib, o‘sha hosildor yurtni mulk qilib olasizlar. 23 Shunday ekan, ehtiyot
bo‘linglar, Egangiz Xudo sizlar bilan qilgan ahdni esdan chiqarmanglar. U taqiqlagan
qiyofadagi birorta butni o‘zlaringizga yasamanglar. 24 Axir, Egangiz Xudo yamlamay
yutadigan olovdir, U rashkchi Xudodir*.
25 O‘sha yurtda ko‘p yashaysizlar, bolalaringiz, nabiralaringiz tug‘iladi. Agar o‘shanda
yo‘ldan ozsangiz, Egangiz Xudoning oldida qabihlik qilib, o‘zingizga turli qiyofadagi
butlarni yasasangiz, U g‘azablanadi. 26 Bugun sizlarga qarshi yeru osmonni guvoh
qilaman: agar menga itoatsizlik qilsangiz, yurtdan tez orada butunlay qirilib ketasizlar.
Iordanni kechib, mulk qilib oladigan yurtda uzoq yashamaysizlar. Bittangiz qolmay
halok bo‘lasizlar. 27 Egamiz sizlarni boshqa xalqlarning orasiga tarqatib yuboradi. O‘sha
xalqlar orasida ayrimlaringiz omon qolasizlar. 28 U yerda inson qo‘li bilan yasalgan
yog‘och va tosh xudolarga xizmat qilasizlar. U xudolar ko‘rolmaydi, eshitolmaydi, ovqat
yeya olmaydi, hid bilmaydi. 29 Ammo u yerda Egangiz Xudoga yuz bursangiz, butun
qalbingiz bilan, jonu dilingiz bilan Uni izlasangiz, topasizlar. 30 Kulfatda qolganingizda,
boshingizga ko‘rgiliklar tushganda, oxiri Egangiz Xudoga qaytasizlar, Uning so‘ziga
quloq solasizlar. 31 O‘shanda U sizlarni tark etmaydi, yo‘q qilmaydi, ota–bobolaringiz
bilan qasam ichib qilgan ahdini unutmaydi. Egangiz Xudo rahmdil Xudodir.
32 Endi sizlar dunyoga kelmasdan oldingi uzoq o‘tmishni, Xudo yer yuzida odamni
yaratgan davrdan shu kungacha bo‘lgan davrni surishtirib ko‘ringlar. Dunyoning bu
chetidan u chetigacha so‘ranglar–chi, shu qadar muhim voqea bo‘lganmi yoki shunga
o‘xshash narsa haqida birortasi eshitganmi?! 33 Sizlarga o‘xshab olov ichidan gapirgan
Xudoning ovozini eshitib, tirik qolgan birorta xalq bormi?! 34 Egangiz Xudo sizlar uchun
Misrda nimalar qilganini o‘z ko‘zingiz bilan ko‘rdingiz. Qaysi xudo sinovlar, alomatu
mo‘jizalar orqali, urush, qudratiyu ajoyibotlari va dahshatli voqealar orqali bir xalqni
O‘zi uchun boshqa xalq orasidan olib chiqqan?! 35 “Egamiz Xudodir, Undan boshqa Xudo
yo‘q”, deb anglashingiz uchun bu voqealar sizlarga ayon qilingan. 36 U sizlarga yo‘l–
yo‘riq ko‘rsatish uchun samodan ovoz berdi. Yer yuzida olov ustuni orqali sizlarga zohir
bo‘ldi. Sizlar o‘sha buyuk olov ichidan Uning ovozini eshitdingizlar. 37 Egamiz Xudo ota–
bobolaringizni sevar edi. Shuning uchun o‘zlaridan keyin ularning avlodlarini tanladi.
Egamiz zohir bo‘lib, O‘zining buyuk qudrati bilan sizlarni Misrdan olib chiqdi. 38 Egamiz
sizlardan kattaroq va kuchliroq xalqlarni oldingizdan haydab, ularning yurtiga sizlarni
kiritmoqchi edi, xuddi bugungiday, mulk qilib oladigan yerlaringizni sizlarga bermoqchi
edi.
39 Egamiz yeru samodagi Xudodir, Undan boshqa Xudo yo‘qdir. Shuni bugun tan olib,
doimo yuragingizda saqlang.
40 Bugun men sizlarga Egamizning farmonlari va amrlarini aytyapman, shularga
rioya qilinglar. Shunda o‘zlaringiz ham, naslingiz ham farovon hayot kechirasizlar.
Egangiz Xudo abadiy qilib berayotgan o‘sha yurtda uzoq yashaysizlar.

Iordanning sharqidagi panoh shaharlar

41 Shundan keyin Muso Iordan daryosining sharq tomonida uchta shaharni ajratdi.
42 Agar kimdir bironta odamni bexosdan, adovat qilmay o‘ldirgan bo‘lsa, o‘sha

shaharlardan biriga qochib borib, jonini qutqarishi mumkin*. 43 Bu shaharlar
quyidagilar edi: Ruben qabilasi uchun yassi tepalikdagi Bazer shahri, Gad qabilasi uchun
Giladdagi Ramo‘t shahri, Manashe qabilasi uchun Bashandagi Go‘lon shahri.

Muso Isroil xalqiga qonunlarni bayon qila boshlaydi

44 Muso Isroil xalqiga quyidagi qonunlarni berdi. 45 Isroil xalqi Misrdan chiqqandan
keyin, Muso shu shartlar, farmonlar va qonun–qoidalarni aytdi. 46 Muso bularni Iordan
daryosining sharqiy qirg‘og‘ida, Bayt–Piyor ro‘parasidagi vodiyda bayon qildi. Bu yer
ilgari Xashbonda hukmronlik qilgan Amor xalqining shohi Sixo‘nga qarashli edi. Muso
bilan Isroil xalqi Misrdan chiqqanlarida, Sixo‘nni mag‘lub qilgan edilar. 47 Isroil xalqi
Iordan daryosining sharqida yashagan ikkala Amor shohining yurtlarini, ya’ni shoh
Sixo‘nning va Bashan shohi O‘gning yurtini bosib olgan edi. 48 Bu joylar Arnon soyligi
etagidagi Aror shahridan Siriyon* tog‘igacha, ya’ni Xermon tog‘igacha cho‘zilgan edi.
49 Shuningdek, Fisgax tog‘ tizmasining etagidagi O‘lik dengizgacha cho‘zilib, Iordan
daryosining sharq tomonidagi butun Iordan vodiysini* ham o‘z ichiga olgan edi.

5–BOB

O‘nta amr

1 Muso jamiki Isroil xalqini bir joyga yig‘ib, ularga aytgan nutqini davom ettirdi.

Ey Isroil xalqi, eshitinglar! Bugun men sizlarga aytayotgan farmonlar va qonun–
qoidalarga quloq solinglar. Bularni yod olib, bitta qoldirmay bajaringlar. 2 Egamiz Xudo
biz bilan Sinay tog‘ida* ahd qildi. 3 U nafaqat ota–bobolarimiz bilan, balki shu yerda
turgan har bir odam bilan ahd qildi. 4 Egamiz o‘sha tog‘da olov ichidan sizlar bilan
yuzma–yuz gaplashdi. 5 Men o‘shanda Egamiz bilan sizlarning orangizda turib, Uning
gapini sizlarga aytib turdim. Chunki sizlar olovdan qo‘rqib, toqqa chiqmadingizlar.
Egamiz shunday deb aytdi:

6 “Men sizlarni Misrdagi qullikdan olib chiqqan Egangiz Xudoman.

7 Mendan boshqa xudolarga sajda qilmang.

8 O‘zlaringizga hech qanday butni yasamang. Osmonda yo yerda yo yer
ostidagi suvda mavjud bo‘lgan biror narsaning shaklini yasamang. 9 O‘sha
xudolar yoki butlarga* sajda qilmang, xizmat qilmang. Men, Egangiz Xudo,
sizlarning sevgingizni boshqa xudolar bilan baham ko‘rmaydigan Xudoman.
Mendan nafratlanadiganlarni jazolayman, ularning gunohlari oqibatidan
farzandlari, nabiralari va chevaralari ham qochib qutulmaydi. 10 Lekin Meni
sevib, amrlarimga rioya qiladiganlarning ming–ming avlodlariga* sodiq sevgimni
ko‘rsataman.

11 Men, Egangiz Xudoning ismini suiiste’mol qilmang*. Kim Mening ismimni
suiiste’mol qilsa, o‘shani jazosiz qoldirmayman.

12 Men, Egangiz Xudoning amriga ko‘ra, Shabbat kunini muqaddas deb biling,
bu kunga rioya qilib yuring. 13 Hamma ishlaringizni bajarishingiz uchun olti kun

bor. 14 Yettinchi kun esa Men, Egangiz Xudoga atalgan Shabbat kunidir. O‘sha
kuni hech qanday ish qilmanglar. O‘g‘illaringiz, qizlaringiz, qullaringiz,
cho‘rilaringiz, molingiz, eshagingiz, birorta hayvoningiz, shahringizdagi
musofirlar ham hech qanday ish qilishmasin. Qulu cho‘rilaringiz sizday dam
olsin. 15 Yodingizda tuting: sizlar Misrda qul edingiz, Men, Egangiz Xudo,
qudratim va ajoyibotlarim bilan sizlarni u yerdan olib chiqdim. Shuning uchun,
Shabbat kuniga rioya qilinglar, deb amr etdim.

16 Men, Egangiz Xudo, amr etganimdek, ota–onangizni hurmat qiling.
O‘shanda Men sizlarga berayotgan yurtda umringiz uzoq bo‘lib, baxtiyor
yashaysiz.

17 Qotillik qilmang.

18 Zino qilmang.

19 O‘g‘rilik qilmang.

20 Qo‘shningizga qarshi yolg‘on guvohlik bermang.

21 Qo‘shningizning xotiniga ko‘z olaytirmang. Qo‘shningizning uyi, dalasi, quli
yoki cho‘risi, moli yoxud eshagi, unga qarashli biror narsasiga ko‘z olaytirmang.”

22 Egangiz bu amrlarni hammangizga o‘sha tog‘da olov, bulut va qorong‘ilik ichidan
baland ovoz bilan aytdi, boshqa biron so‘z qo‘shmadi. So‘ngra U bu amrlarni ikkita tosh
lavhaga yozib, menga berdi.

Xalq Xudodan qo‘rqadi

23 Tog‘ olov bo‘lib yonayotganda, qorong‘ilik ichidan ovoz eshitdingiz. Shunda
qabilalaringiz boshliqlari va oqsoqollari mening oldimga kelib, 24 shunday deyishdi:
“Mana, Egamiz Xudo ulug‘vorligini, buyukligini bizga ko‘rsatdi. Uning ovozini biz olov
ichidan eshitdik. Bugun biz Xudoning inson zotiga gapirganini, ammo inson tirik
qolganini ko‘rdik. 25 Nima qilamiz endi jonimizni xavf ostiga qo‘yib?! Mana bu buyuk
olov bizni yondirib tashlaydi–ku. Agar biz Egamiz Xudoning ovozini yana eshitsak, aniq
o‘lamiz. 26 Axir, olov ichidan gapiradigan barhayot Xudoning ovozini biz kabi, eshitib,
tirik qolgan inson bormi?! 27 Endi sen bor, Egamiz Xudoning hamma so‘zlarini eshit.
Keyin Uning har bir so‘zini bizga ayt. Biz quloq solib, bajaramiz.”
28 Sizlar menga gapirganlaringizda, Egamiz so‘zlaringizni eshitib, shunday dedi:
“Men bu xalqning senga aytgan so‘zlarini eshitdim, hamma aytganlari to‘g‘ri. 29 Qaniydi,
ularning yuraklari har doim shunday bo‘lsa, Mendan qo‘rqib, amrlarimni bajarishsa!
Shunda o‘zlari ham, farzandlari ham to abad baxtli bo‘lishardi. 30 Endi ularning oldiga
borib: «Chodirlaringizga qaytinglar», deb ayt. 31 Sen esa shu yerda Mening yonimda
qolasan. Men senga amrlar, farmonlar va qonun–qoidalar beraman. Sen bularni xalqqa
o‘rgatasan. Men ularga mulk qilib beradigan yurtda hammasiga rioya qilishsin.”
32 Endi o‘ngga ham, chapga ham og‘may, Egangiz Xudo sizlarga buyurgan amrlarga
bitta qoldirmay rioya qilinglar. 33 Egangiz Xudo amr etgan yo‘ldan yuringlar. Shunda
yashaysizlar, baxtli bo‘lasizlar, mulk qilib oladigan yurtda uzoq umr ko‘rasizlar.

6–BOB

Eng buyuk amr

1 Egangiz Xudo, xalqqa o‘rgatgin, deb menga bergan amrlar, farmonlar va qonun–
qoidalar shulardan iboratdir. Iordanni kechib o‘tib, mulk qilib oladigan yurtda bularga
rioya qilinglar. 2 Men sizlarga beradigan farmon va amrlarga o‘zlaringiz, farzandlaringiz
va nabiralaringiz, hammangiz rioya qilinglar. Bir umr Egangiz Xudodan qo‘rqinglar,
shunda umringiz uzoq bo‘ladi. 3 Ey Isroil xalqi, quloq soling, bularni bitta qoldirmay
bajaring. Shunda ota–bobolaringizning Xudosi — Egangiz bergan va’daga ko‘ra, sut va
asal oqib yotgan yurtda* ko‘payasizlar, baxtiyor bo‘lasizlar.
4 Ey Isroil, quloq sol! Egamiz Xudo tanho Egadir*. 5 Egangiz Xudoni butun qalbingiz
bilan, jonu dilingiz bilan, butun vujudingiz bilan sevinglar. 6 Bugun men sizlarga bergan
bu amrlarni yuragingizda saqlanglar. 7 Bularni bolalaringizga ham o‘rgatinglar. Uyda
o‘tirganda ham, yo‘lda yurganda ham, yotganingizda ham, turganingizda ham shular
haqida gapiringlar. 8 Bularni qo‘lingizga belgi qilib bog‘langlar, peshanangizga nishona
qilib taqib olinglar. 9 Eshigingiz kesakisiga*, darvozalaringizga yozib qo‘yinglar.

Itoatsizlikka qarshi ogohlantirish

10 Egangiz Xudo ota–bobolaringiz Ibrohim, Is’hoq, Yoqubga qasam ichib, va’da qilgan
yerga sizlarni olib kiradi. U sizlarga o‘zingiz qurmagan katta va chiroyli shaharlarni
beradi. 11 O‘zingiz to‘ldirmagan, boyliklarga to‘la uylarni, o‘zingiz qazimagan
sardobalarni, siz ekmagan toklar va zaytunzorlarni beradi. O‘shanda yeb
to‘yganlaringizdan keyin 12 ehtiyot bo‘linglar! Sizlarni Misrdagi qullikdan olib chiqqan
Egamizni unutmanglar. 13 Egangiz Xudodan qo‘rqinglar. Faqat Unga xizmat qilinglar.
Yolg‘iz Uning nomi bilan qasam ichinglar. 14 Begona xudolarga, atrofingizdagi
xalqlarning xudolariga ergashmanglar. 15 Axir, orangizdagi Egangiz Xudo sizning
sevgingizni boshqa xudolar bilan baham ko‘rmaydigan Xudodir. U g‘azablanib, sizlarni
yer yuzidan yo‘qotib yuboradi.
16 Massaxda qilganingizdek*, Egangiz Xudoni sinamanglar. 17 Uning amrlarini,
farmon va shartlarini bitta qoldirmay bajaringlar. 18 Egamiz to‘g‘ri va yaxshi deb bilgan
ishlarni qilinglar. Shunda Egamiz ota–bobolaringizga qasam ichib, va’da qilgan hosildor
yurtni sizlar mulk qilib olasizlar, baxtiyor bo‘lasizlar. 19 Egamiz, O‘zi aytganidek,
yurtingizda yashagan barcha dushmanlaringizni haydab chiqaradi.
20 Kelajakda farzandlaringiz sizlardan: “Egamiz Xudo sizlarga bergan qonun–
qoidalar, farmon va shartlarning ma’nosi nima?” deb so‘raydi. 21 Ularga shunday deb
javob beringlar: “Biz Misrda fir’avnning qullari edik. Egamiz O‘z qudrati bilan bizni
Misrdan olib chiqdi. 22 U bizning ko‘zimiz oldida Misrga, fir’avn va uning butun
xonadoniga buyuk, qo‘rqinchli alomatu mo‘jizalarni ko‘rsatdi. 23 Ota–bobolarimizga ont
ichib va’da qilgan yurtga bizni olib kirish uchun, o‘sha yurtni bizga berish uchun bizni
Misrdan olib chiqdi. 24 Egamiz Xudo: «Mana shu farmonlarning hammasiga rioya
qilinglar, Mendan qo‘rqinglar, shunda bugungiday tirik bo‘lasiz, baxtli hayot kechirasiz»,
dedi. 25 Egamiz Xudoning oldida mana shu amrlarni bitta qoldirmay bajarsak, solih
bo‘lamiz.”

7–BOB

Xudoning xalqi

1 Egangiz Xudo sizlarni egalik qiladigan yurtingizga olib kiradi. O‘shanda U
oldingizdan Xet, Girgosh, Amor, Kan’on, Pariz, Xiv, Yobus kabi yettita xalqni haydaydi.
Ular sizlardan ko‘ra, ko‘proq va qudratliroqdir. 2 Egangiz Xudo bu xalqlarni sizlarning
qo‘lingizga topshirganda, sizlar ularni mag‘lub etasizlar. Shunda ularning hammasini
tamomila qirib bitiringlar. Ular bilan ittifoq tuzmanglar, ularga rahm–shafqat
qilmanglar. 3 Ular bilan quda–andachilik qilmanglar, ularga qiz uzatmanglar,
o‘g‘illaringizga ularning qizlaridan olib bermanglar. 4 Aks holda, ular farzandlaringizni
Egamizdan qaytaradi. Farzandlaringiz boshqa xudolarga xizmat qiladigan bo‘ladi.
O‘shanda Egamiz g‘azablanib, sizlarni bir lahzada halok qiladi. 5 Aksincha, o‘sha
xalqlarni sizlar shunday qilinglar: ularning qurbongohlarini buzinglar, butsimon
toshlarini parchalab tashlanglar, Asheraga* atalgan ustunlarni kesinglar, butlarini
yondiringlar. 6 Sizlar Egangiz Xudoning muqaddas xalqisiz. U sizlarni yer yuzidagi jamiki
xalqlar orasidan O‘z xalqi, O‘z xazinasi qilib tanlab oldi.
7 Egamiz sizlarni boshqa xalqlardan ko‘p bo‘lganingiz uchun sevib tanlamadi. Sizlar
boshqa hamma xalqlardan oz edingiz. 8 Egamiz sizlarni sevgani uchun va ota–
bobolaringizga bergan va’dasini ado etish uchun sizlarni tanladi. Shu bois U sizlarni
Misr fir’avni hukmronligidan, Misrdagi qullikdan O‘z qudrati bilan olib chiqib, ozod
qildi. 9 Shunday qilib, Egangiz Xudo haqiqiy Xudo ekanini bilib qo‘yinglar. U sodiq
Xudodir! Uni sevadigan, Uning amrlarini bajaradiganlarning minginchi avlodigacha
ahdini sodiq saqlaydi. 10 Xudodan nafratlanganlarning esa qilmishlariga yarasha
boshlariga kulfat yog‘diradi. Ha, Egamiz Undan nafratlanganlarga javob berishda
kechikmaydi. 11 Shuning uchun bugun men sizlarga berayotgan amrlarni, farmonlar va
qonun–qoidalarni bitta qoldirmay bajaringlar.

Itoatgo‘ylikdan kelgan baraka

12 Agar mana shu qonun–qoidalarga itoat etib, ularni bitta qoldirmay bajarsangiz,
Egangiz Xudo ham ota–bobolaringizga ont ichib, va’da qilgan ahdini sizlar bilan sodiq
saqlaydi. 13 U sizlarga mehr qo‘yadi, ota–bobolaringizga beraman, deb ont ichgan yurtda
sizlarga baraka berib, ko‘paytiradi. Uvali–juvali bo‘lasizlar, yeringiz hosildor, doningiz,
sharobingiz va moyingiz serob bo‘ladi, mol–qo‘yingiz barakali bo‘ladi, sigirlaringiz
bolalaydi, qo‘ylaringiz qo‘zilaydi. 14 Sizlar barcha xalqlar orasida barakaga eng boy xalq
bo‘lasizlar, orangizda farzandsiz erkak ham, ayol ham bo‘lmaydi, mollaringiz orasida
qisiri bo‘lmaydi. 15 Egamiz sizlarni har qanday kasallikdan saqlaydi. Misrda o‘zlaringiz
ko‘rgan har xil qo‘rqinchli xastaliklar sizlarning boshingizga kelmaydi. O‘sha
xastaliklarni Egamiz sizlarning g‘animlaringizga yuqtiradi. 16 Egangiz Xudo sizlarning
qo‘lingizga topshiradigan barcha xalqlarni qirib yuboringlar, ularga rahm qilmanglar,
ularning xudolariga sig‘inmanglar. Aks holda, ularning xudolari sizlarga tuzoq bo‘ladi.
17 Xayolingizda: “Bu xalqlar bizdan juda kuchli–ku, qanday qilib ularni haydaymiz?”
deb o‘ylashingiz mumkin, 18 ammo ulardan qo‘rqmanglar. Egangiz Xudo fir’avnni, butun
Misrni nima qilganini esingizda tutinglar. 19 Egangiz Xudo O‘z qudrati va ajoyibotlari
bilan sizlarni u yerdan olib chiqdi, buyuk sinovlar, alomatu mo‘jizalar ko‘rsatdi. Bularni
o‘z ko‘zingiz bilan ko‘rdingiz. Siz qo‘rqayotgan hamma xalqlarni Egangiz Xudo xuddi

oʻsha ahvolga soladi. 20 Hatto sizlardan yashirinib tirik qolganlarni U vahimaga solib,
quvib yuboradi*. 21 Ulardan qoʻrqmanglar. Orangizdagi Egangiz Xudo buyuk va haybatli
Xudodir. 22 U oʻsha xalqlarni sizlarning oldingizdan oz–ozdan haydaydi. Sizlar ularni
birdaniga halok qilolmaysizlar. Boʻlmasa atrofingizda yovvoyi hayvonlar koʻpayib
ketadi. 23 Egangiz Xudo oʻsha xalqlarni sizlarning qoʻlingizga beradi, ularning hammasini
qattiq sarosimaga solib, halok qiladi. 24 Shohlarini ham sizlarning qoʻlingizga beradi.
Sizlar ularning nomlarini yer yuzidan oʻchirasizlar. Hech kim sizlarga bas kelolmaydi,
ularning hammasini halok qilasizlar. 25 Xudolarining tasvirlarini olovda yondiringlar,
ularni qoplagan oltinu kumushlarga koʻz olaytirmanglar, oʻsha narsalarni olmanglar,
toki ular sizlarga tuzoq boʻlmasin. Bu butlar Egangiz Xudoga jirkanchdir. 26 Bu jirkanchli
narsalarni uyingizga olib kirmang, aks holda, oʻshalar singari yoʻq qilinasiz. Oʻsha
narsalardan nafratlaninglar, jirkaninglar, chunki ular la’natlangandir.

8–BOB

Yaxshi yurt haqida

1 Bugun men sizlarga berayotgan amrlarni bitta qoldirmay bajaringlar, shunda
yashaysizlar, koʻpayasizlar. Egamiz ota–bobolaringizga qasam ichib, beraman, deb va’da
qilgan yurtga kirasizlar. Oʻsha yurtni mulk qilib olasizlar. 2 Egangiz Xudo qirq yil
davomida sizni sahrodan olib yurdi, oʻsha uzoq safarni yodingizda tutinglar. Egamiz
yuragingizda nima borligini, Uning amrlarini bajarishingizni yoki bajarmasligingizni
bilishi uchun sizlarni qiyinchiliklarga duchor qilib, sinadi. 3 U sizlarni och qoldirdi, soʻng
oʻzlaringiz koʻrmagan, ota–bobolaringiz ham koʻrmagan manna* bilan qorningizni
toʻydirdi. U sizlarga inson faqat non bilan emas, balki Egamizning ogʻzidan chiqqan har
bir soʻz bilan hayot ekanini oʻrgatish uchun shunday qildi. 4 Mana shu qirq yil davomida
kiyimlaringiz eskirib ketmadi, oyogʻingiz ham shishmadi. 5 Endi shuni bilinglarki, inson
farzandini qanday tarbiyalasa, Egangiz Xudo ham sizlarni shunday tarbiyalaydi.
6 Egangiz Xudoning amrlariga rioya qilinglar. U koʻrsatgan yoʻldan yuringlar. Undan
qoʻrqinglar. 7 U sizlarni hosildor yurtga olib boradi, u yerda irmoqlar, buloqlar, vodiy va
qirlarda yer ostidan chiqadigan suvlar bor. 8 Bugʻdoy, arpa, uzum, anjir, anor, zaytun
moyi va asal oʻsha yurtda moʻldir. 9 U yerda toʻyib non yeysizlar, hech narsaga muhtoj
boʻlmaysizlar. U yer shunday bir yurtki, qoyalardan temir, qirlaridan mis chiqarasizlar.
10 Oʻsha yerda yeb toʻyganingizda, sizlarga bergan hosildor yurt uchun Egangiz Xudoni
olqishlanglar.

Egamizni unutmaslik haqida ogohlantirish

11 Hushyor boʻlinglar, men bugun sizlarga aytayotgan Egamizning amrlarini,
farmonlar va qonun–qoidalarini bajarmay qoʻymanglar. Egangiz Xudoni esingizdan
chiqarmanglar. 12 Yeb toʻyganingizda, chiroyli uylar qurib joylashganingizda, 13 mol,
qoʻylaringiz, oltin–kumushingiz va barcha mulkingiz koʻpayganda, 14 gerdayib
ketmanglar. Sizlarni Misrdagi qullikdan olib chiqqan Egangiz Xudoni esingizdan
chiqarmanglar. 15 U sizlarni zaharli ilonlar, chayonlarga toʻla oʻsha bahaybat va
qoʻrqinchli sahrodan, suvsiz, taqir joylardan olib oʻtdi. U yerda sizlar uchun qoyadan suv
chiqardi*. 16 Ota–bobolaringiz bilmagan manna bilan sahroda qorningizni toʻygʻizdi.
Oqibatda sizlarga yaxshilik keltirish uchun sizlarni qiyinchiliklarga duchor qilib, sinadi.
17 Xayolingizda: “Oʻz kuch–qudratim bilan mana shu boylikni topdim”, demanglar.

18 Ammo Egangiz Xudoni doimo yodingizda tutinglar. Zero, boylikni topishga kuch
bergan Egangizdir. Shunday qilib, U ota–bobolaringiz bilan qasam ichib, qilgan ahdini
bugun bajarmoqda. 19 Bugun men sizlarni jiddiy ogohlantiryapman. Agar Egangiz
Xudoni unutib boshqa xudolarga ergashsangizlar, ularga xizmat qilib, sig‘insangizlar,
sizlar albatta yo‘q bo‘lasizlar. 20 Egangiz Xudo boshqa xalqlarni oldingizdan yo‘q qilgani
kabi, Uning amrlariga quloq solmaganingiz uchun sizlarni ham yo‘q qiladi.

9–BOB

Xalqning itoatsizligi

1 Quloq sol, ey Isroil! Bugun Iordan daryosining narigi tomoniga* o‘tasizlar.
O‘zlaringizdan ko‘proq va kuchliroq bo‘lgan xalqlarning yerlarini mulk qilib olasizlar.
Ularning ulkan shaharlari osmono‘par devorlar bilan o‘ralgan. 2 O‘sha kuchli, bo‘yi
baland xalq Onoq avlodidandir*. Ularni o‘zlaringiz bilasizlar, “Onoq avlodiga kim ham
bas kela olardi?!” degan gaplarni eshitgansizlar. 3 Bugun shuni bilib qo‘yinglarki, Egangiz
Xudo yamlamay yutadigan olovday sizlarning oldingizda boradi. Xudo Onoq avlodini
mag‘lub qilib, sizlarga itoat ettiradi. Shunda Egamiz bergan va’daga ko‘ra, ularni bir
lahzada quvib, yo‘q qilasizlar.

4 Egangiz Xudo ularni sizlarning oldingizdan haydaganda, o‘zingizcha: “Egam
solihligim uchun bu yerni menga berdi”, deb aytmanglar. Bu xalqlar fosiq bo‘lgani uchun
Egamiz ularni sizlarning oldingizdan haydayapti. 5 Sizlar solihligingiz uchun, yuragingiz
to‘g‘ri bo‘lgani uchun ularning yeriga borib egalik qilmayapsizlar. Yo‘q! Bu xalqlarning
fosiqligi tufayli Egangiz Xudo ularni oldingizdan haydayapti. Shu yo‘l bilan otalaringiz
Ibrohim, Is’hoq va Yoqubga Egangiz ont ichib bergan va’dasini bajaradi. 6 Shuni bilib
qo‘yinglarki, Egangiz Xudo bu hosildor yurtni sizlarga solih bo‘lganingiz uchun
bermayapti. Sizlar solih emas, o‘jar xalqsiz.

7 Egangiz Xudoni sahroda qanchalar g‘azablantirganingizni yodingizda tutinglar, aslo
unutmanglar. Misrdan chiqqan kundan boshlab, mana shu yerga yetib kelguningizcha
Egamizga qarshilik qilib keldingizlar. 8 Sinay tog‘ida* ham Egamizning g‘azabini
keltirganingizda, U shunday g‘azablandiki, sizlarni yo‘q qilib yuboray dedi. 9 Men tosh
lavhalarni, ya’ni Egamiz sizlar bilan qilgan ahd* lavhalarini olgani toqqa chiqdim. Qirq
kechayu qirq kunduz tog‘da bo‘ldim, u yerda na non yedim, na suv ichdim. 10 Egamiz
menga O‘z qo‘li bilan yozgan ikkita tosh lavhani berdi. Tog‘da yig‘ilgan kuningiz Egamiz
sizlarga olov ichidan aytgan amrlarning hammasi tosh lavhalarga yozilgan edi. 11 Qirq
kechayu qirq kunduzdan keyin Egamiz menga ahd so‘zlari yozilgan ikkita tosh lavhani
berdi.

12 Keyin Egamiz menga: “Qani bo‘l, bu yerdan tez pastga tush! O‘zing Misrdan
boshlab olib chiqqan xalq yo‘ldan ozdi. Men sizlarga amr qilgan yo‘ldan darrov toyib,
o‘zlariga but yasadi”, — dedi.

13 Egamiz menga yana shunday dedi: “Bu xalq haqiqatan ham o‘jar ekanligini ko‘rib
turibman. 14 Endi Meni to‘xtatma. Hammasini halok qilaman, ularning nomini yer
yuzidan o‘chiraman. Ulardan ham ko‘proq, kuchliroq xalqni sendan yarataman.”

15 Men tog‘dan qaytib tushdim. Tog‘ olov bo‘lib yonar, ahdning ikkita tosh lavhasini
qo‘llarimga ko‘tarib olgan edim. 16 Qarasam, sizlar Egangiz Xudoga qarshi gunoh
qilibsizlar, o‘zlaringizga buzoq shaklidagi butni yasab olibsizlar. Birpasda Egamiz

sizlarga amr qilgan yo‘ldan toyibsizlar. 17 Shunda qo‘llarimdagi ikkala tosh lavhani otib
yubordim. Ularni ko‘z oldingizda sindirdim. 18 Egamiz oldida yuz tuban muk tushib,
oldingiday* qirq kechayu qirq kunduz non yemay, suv ichmay iltijo qildim, chunki sizlar
gunoh qilgan edingizlar. Egamiz oldida qabih ish qilib, Uni g‘azablantirgan edingizlar.
19 Egamiz g‘azablanib, sizlarni yo‘q qilmoqchi bo‘ldi. Men Uning g‘azabidan qo‘rqdim.
Lekin Egamiz bu safar ham mening iltijolarimga quloq soldi. 20 Egamiz Horundan ham
g‘azablanib, uni halok qilmoqchi bo‘ldi, lekin men o‘shanda Horun uchun ham Egamizga
yolvordim. 21 Sizlar butni yasab gunoh qildingiz, shuning uchun men butni olovda
yondirdim. Tuproqday maydalab ezib, kukunini tog‘dan oqib tushayotgan irmoqqa
tashlab yubordim. 22 Sizlar Taverada* ham, Massax* va Xivrut–Xattavoda* turganingizda
ham Egamizni g‘azablantirgan edingiz. 23 Egamiz sizlarni Kadesh–Barnadan jo‘natganda
ham, sizlarga: “Boringlar, Men sizlarga beradigan yerni mulk qilib olinglar”, deb amr
qilganda, sizlar Egangiz Xudoning amriga qarshilik qildingizlar*. Unga ishonmadingizlar,
quloq solmadingizlar. 24 Men sizlarni taniganimdan buyon, sizlar Egamizga qarshi bosh
ko‘tarasizlar.

25 Egamiz sizlarni halok qilmoqchi bo‘lgani uchun Men Egamiz oldida o‘sha qirq
kechayu qirq kunduz muk tushib ibodat qilganimda 26 shunday deb yolvorgan edim: “Ey
Egamiz Rabbiy! Xalqingni halok qilma. Axir, ular Sening mulking–ku! Sen ularni buyuk
kuching bilan qutqarib, qudrating bilan Misrdan olib chiqqansan. 27 Qullaring Ibrohim,
Is’hoq va Yoqubni yodingda tut, bu xalqning o‘jarligi, fosiqligi va gunohiga e’tibor berma.
28 Aks holda, Misrliklar shunday deydi: «Anavi xalqning Egasi va’da qilgan yeriga ularni
olib kirolmabdi. U O‘zining xalqini yomon ko‘rar ekan, shuning uchun ularni sahroda
nobud qilish maqsadida Misrdan olib chiqqan ekan!» 29 Axir, ularni buyuk kuching va
ajoyibotlaring bilan Misrdan O‘zing olib chiqqansan, ular Sening xalqingdir.”

10–BOB

Yangi tosh lavhalar

1 Shundan keyin Egamiz menga dedi: “Ikkita tosh lavhani kesib ol. Ular oldingilariga
o‘xshagan bo‘lsin. Keyin toqqa Mening oldimga chiq. Yana yog‘ochdan bir Sandiq yasa.
2 Men o‘sha tosh lavhalarga sen sindirgan lavhalardagi amrlarni yozaman. Sen lavhalarni
Sandiqqa solib qo‘yasan.”

3 Shunday qilib, men akas yog‘ochidan* Sandiq yasadim, oldingisiga o‘xshagan ikkita
tosh lavhani kesib oldim. Keyin ikkala toshni ko‘tarib, toqqa chiqdim. 4 Egamiz tosh
lavhalarga oldingiday o‘nta amrni yozdi. Sizlar tog‘da yig‘ilganingizda o‘sha amrlar
Egamiz olov ichidan sizga aytgan so‘zlarning o‘zginasi edi. Egamiz o‘sha lavhalarni
menga berdi. 5 Men tog‘dan qaytib tushdim. Egamizning amriga ko‘ra, lavhalarni
Sandiqqa soldim. Lavhalar hali ham o‘sha Sandiqda turibdi.

6 (Isroil xalqi Yaqon urug‘iga qarashli quduqlardan* Mosaraxga yo‘l oldi. Horun o‘sha
yerda vafot etib*, dafn qilindi. O‘rniga o‘g‘li Elazar ruhoniy bo‘ldi. 7 Isroil xalqi u yerdan
Gudgodaxga, Gudgodaxdan oqar suvlar o‘lkasi Yotbotoga borishdi. 8 Egamiz: “Mening
Ahd sandig‘imni ko‘tarib yursin, Mening huzurimda xizmat qilsin, Mening ismim bilan
odamlarni duo qilsin”, deb o‘shanda Levi qabilasini tanlab olgan edi. Ular bugungacha*
ham shu xizmatni ado etib kelmoqdalar. 9 Shuning uchun Levi qabilasiga birodarlari
orasidan ulush ham, mulk ham berilmagan. Zotan, Levi qabilasining ulushi Egamizning

O‘zidir. Bu gapni Egangiz Xudoning O‘zi aytdi.)
10 Men yana oldingiday tog‘da qirq kechayu qirq kunduz qoldim. Egamiz bu safar
ham mening iltijoimni eshitib, sizlarni halok qilmaydigan bo‘ldi. 11 U menga shunday
dedi: “Qani, xalqni boshla. Ularni Men ota–bobolariga qasam ichib va’da bergan yurtga
olib bor. Ular o‘sha yurtga borib, uni qo‘lga kiritishsin.”

Xudoning talablari

12 Ey Isroil xalqi! Egangiz Xudo sizlardan bitta narsani talab qiladi: Egangiz Xudodan
qo‘rqing, Uning yo‘lidan yuring, Egangiz Xudoni seving, butun qalbingiz bilan, jonu
dilingiz bilan Unga xizmat qiling. 13 Men bugun sizlarga berayotgan Egamizning amru
farmonlariga rioya qiling, shunda baxtiyor bo‘lasiz. 14 Osmon va falak toqi, yer yuzi va
undagi hamma narsa Egangiz Xudonikidir. 15 Ammo Egamiz faqatgina ota–
bobolaringizga qattiq muhabbat qo‘ydi. Mana bugun ko‘rib turganingizday, ularning
avlodini, sizlarni barcha xalqlar orasidan tanlab oldi. 16 Yuraklaringizni sunnat
qilinglar*, bundan keyin o‘jar bo‘lmanglar. 17 Egangiz Xudo xudolarning Xudosidir,
egalarning Egasidir*, buyuk qudratli, qo‘rqinchli Xudodir. U tarafkashlik qilmaydi, pora
olmaydi. 18 Yetim va bevalarga adolat qiladi, musofirga mehribonlik qiladi, ularga non va
kiyim beradi. 19 Sizlar ham musofirlarga mehribon bo‘linglar, o‘zlaringiz ham Misrda
musofir edingizlar. 20 Egangiz Xudodan qo‘rqinglar. Yolg‘iz Unga sajda qilinglar, Unga
sodiq bo‘lib, Uning nomi bilan qasam ichinglar. 21 Faqat Unga hamdlar aytinglar, chunki
U sizlarning Xudoyingizdir. Sizlar o‘z ko‘zingiz bilan Uning buyuk va qo‘rqinchli
alomatlarini ko‘rdingiz. 22 Misrga borgan ota–bobolaringiz yetmish kishi* edi, xolos.
Endi esa Egangiz Xudo sizlarni osmondagi yulduzlar kabi son–sanoqsiz qildi.

11–BOB

Egamizning buyukligi

1 Egangiz Xudoni sevinglar. Har doim Uning amrlariga, qonun–qoidalariga va
farmonlariga rioya qilinglar, talablarini bajaringlar. 2 Shuni unutmanglarki, bolalaringiz
emas, sizlar Egangiz Xudoning tarbiyasini olgansizlar. Farzandlaringiz Egamizning
buyukligini, qudrati va ajoyibotlarini ko‘rmagan. 3 Egamiz Misr fir’avniga va uning butun
yurtiga qilgan mo‘jizalaru ishlarini ular bilmaydi. 4 Orqangizdan quvayotgan Misr
lashkarini, ot–aravalarini Egamiz Qizil dengizga* cho‘ktirib, tamomila yo‘q qilganini
bolalaringiz ko‘rmagan. 5 Shu yerga yetib kelguningizcha sahroda Egamiz sizlar uchun
nimalar qilganini ular bilmaydilar. 6 Ruben qabilasidan Eliyobning o‘g‘illari Datan va
Aburamni Egamiz nimalar qilganini* bilmaydilar. Butun Isroil xalqining ko‘z o‘ngida yer
yorilib ularni, oilalarini, chodirlarini, ularga qarashli barcha jonivorlarni yutib
yuborganini bolalaringiz ko‘rmagan. 7 Egamizning qilgan barcha buyuk ishlarini
bolalaringiz emas, sizlar o‘z ko‘zingiz bilan ko‘rdingiz.

Va’da qilingan yurtning barakalari

8 Shunday ekan, Men bugun sizlarga berayotgan amrlarning hammasiga rioya
qilinglar. Shunda kuchli bo‘lasizlar. Iordan daryosidan kechib, mulk qilib oladigan yurtni
qo‘lga kiritasizlar. 9 Egamiz ota–bobolaringizga va ularning avlodiga qasam ichib, va’da
bergan sut va asal oqib yotgan yurtda* uzoq yashaysizlar. 10 Sizlar kirib mulk qilib
olayotgan bu yer o‘zlaringiz chiqqan Misr yurtiday emas. Misrda sabzavot urug‘ini

oʻzlaringiz ekib, oʻzlaringiz sugʻorar edingizlar*. 11 Sizlar Iordanni kechib oʻtib, mulk
qilib oladigan yurtdagi qirlaru vodiylarni esa osmon yomgʻiri sugʻoradi. 12 Egangiz
Xudoning Oʻzi uni parvarish qiladi. Yil boshidan oxirigacha Egangiz Xudoning koʻzi doim
oʻsha yurtdadir.
13 Bugun men sizlarga berayotgan amrlarga quloq solinglar, Egangiz Xudoni
sevinglar, Unga butun qalbingiz bilan, jonu dilingiz bilan xizmat qilinglar. 14 Shunda U
yeringizga kuz va bahor yomgʻirini oʻz vaqtida yogʻdiradi. Doningizni, sharobingizni va
zaytun moyingizni yigʻib olasiz*. 15 Egamiz dalalaringizda chorvangiz uchun oʻt oʻstiradi,
sizlarning rizqingiz ham but boʻladi. 16 Ammo ehtiyot boʻlinglar! Yana vasvasaga tushib,
yoʻldan ozmanglar. Boshqa xudolarga xizmat qilib, sigʻinmanglar. 17 Aks holda, Egamiz
sizlardan gʻazablanib, osmonni yopib qoʻyadi, yomgʻir yogʻmaydi, yer hosil bermaydi.
Natijada Egamiz sizlarga mulk qilib berayotgan yaxshi yurtdan tez qirilib ketasizlar.
18 Mening bu soʻzlarimni yuragingiz va qalbingizda saqlanglar. Bularni qoʻlingizga
belgi qilib bogʻlanglar, peshanangizga nishona qilib taqib olinglar. 19 Bularni
bolalaringizga oʻrgatinglar. Uyda oʻtirganda ham, yoʻlda yurganda ham, yotganingizda,
turganingizda ham shular haqida gapiringlar. 20 Eshigingiz kesakisiga, darvozalaringizga
yozib qoʻyinglar, 21 toki Egamiz ota–bobolaringizga qasam ichib, mulk qilib beraman,
deb vaʼda qilgan yurtda oʻzlaringiz ham, farzandlaringiz ham uzoq umr koʻringlar.
Osmon yer ustida qancha tursa, oʻsha yurtda shuncha yashanglar.
22 Men bugun sizlarga aytayotgan amrlarni bitta qoldirmay bajarsangiz, Egangiz
Xudoni sevsangiz, Uning yoʻlidan yursangiz, Unga sodiq boʻlsangiz, 23 Egamiz bu
yurtdagi xalqlarning hammasini sizlarning oldingizdan haydaydi. Sizlar oʻzingizdan
koʻproq va qudratliroq xalqlarning yurtlarini egallab olasiz. 24 Oyogʻingiz tekkan har
qanday yer sizniki boʻladi. Chegarangiz janubdagi sahrodan to shimoldagi Lubnongacha,
sharqdagi Furot daryosidan to gʻarbdagi Oʻrta yer dengizigacha choʻziladi. 25 Sizlarga
hech kim bas kela olmaydi. Egangiz Xudo sizlarga vaʼda berganday, qadamingiz yetib
borgan yerdagi hammani sizlardan qoʻrqadigan, vahimaga tushadigan qilib qoʻyadi.
26 Mana bugun men sizlarga barakani yoki laʼnatni tanlang, deyapman. 27 Men bugun
sizlarga aytayotgan Egangiz Xudoning amrlarini bajarsangiz, baraka topasiz. 28 Bordi–
yu, Uning amrlariga quloq solmasangiz, bugun sizlarga buyurayotgan yoʻldan ozsangiz,
oldin bilmagan xudolarga ergashsangiz, laʼnati boʻlasiz.
29 Egangiz Xudo oʻzlaringizga mulk qilib berayotgan yerga sizlarni olib kirganda,
Garizim togʻidan barakalarni aytinglar, Ebal togʻidan* laʼnatlarni aytinglar. 30 Bu ikkala
togʻ Iordanning kunbotar tomonida joylashgan. Ular Iordan vodiysida* yashaydigan
Kanʼonliklar yurtida, Gilgal yaqinida, Moʻredagi emanzor yonidadir. 31 Iordandan kechib
oʻtib, Egangiz Xudo sizlarga mulk qilib beradigan yurtni olasizlar. U yerni qoʻlga kiritib
joylashib olganingizda, 32 men bugun sizlarga aytayotgan Uning hamma farmonlari va
qonun–qoidalarini bitta qoldirmay bajaringlar.

12–BOB

Kanʼon yurtida rioya qilinadigan qonun–qoidalar

1 Ota–bobolaringizning Xudosi — Egangiz sizlarga mulk qilib berayotgan yurtda
bajarishingiz lozim boʻlgan farmonlar va qonun–qoidalar quyidagilardan iboratdir.
Bularni bitta qoldirmay bajaringlar. 2 Sizlar boradigan yurtdagi xalqlar boshqa

xudolarga sig‘inadi. Ularning yurtini qo‘lga kiritganingizdan keyin tog‘ cho‘qqilaridagi, qirlardagi va har bir yashil daraxt ostidagi sajdagohlarini buzib, yo‘q qilinglar.
3 Qurbongohlarini buzinglar, butsimon toshlarini parchalab tashlanglar, Asheraga* atalgan ustunlarni yondiringlar, butlarini chopib tashlab, xudolarining nomini u yerdan yo‘q qilinglar.

Sajda qilish uchun yagona joy

4 Sizlarning Egangiz Xudoga sajda qilishingiz o‘sha xalqlarning sajdasiga o‘xshamasin. 5 Egangiz Xudo ulug‘lanishi uchun barcha qabilalaringiz orasidan O‘ziga bir joy tanlaydi. Sizlar o‘sha joyda Unga sajda qilinglar. 6 U yerga kuydiriladigan va boshqa qurbonliklarni, ushrlaringizni*, ehsonlaringizni, bergan va’dangizga muvofiq qilinadigan nazrlaringizni, ko‘ngildan chiqarib beradigan qurbonliklaringizni, mol–qo‘ylaringizning birinchi tug‘ilgan bolalarini* olib boringlar. 7 U yerda, Egangiz Xudoning huzurida oilalaringiz bilan yeb, Egangiz Xudo hamma ishingizga bergan barakadan sevininglar.
8 U yerda biz hozir qilayotgan ishlarni qila ko‘rmanglar. Bu yerda hamma ko‘ngliga ma’qul kelganini qilyapti. 9 Chunki Egangiz Xudo sizga mulk qilib beradigan yerga hali kirmadingiz, osoyishta hayotga erishmadingiz. 10 Ammo ko‘p o‘tmay sizlar Iordan daryosidan o‘tasizlar, Egangiz Xudo mulk qilib beradigan yurtda joylashasizlar. U dushmanlaringizni yengib, sizlarga har tarafdan osoyishtalik ato qiladi, sizlar xavf–xatarsiz yashaysizlar. 11 Shunda Egangiz Xudo O‘zi ulug‘lanishi uchun tanlaydigan joyga men amr qilgan nazru qurbonliklaringizni olib boringlar. Kuydiriladigan va boshqa qurbonliklaringizni, ushrlaringizni, ehsonlaringizni, bergan va’dangizga muvofiq qilinadigan a’lo nazrlaringizni Egamizga atab, o‘sha yerga olib boringlar. 12 Egangiz Xudo huzurida o‘zlaringiz, o‘g‘illaringiz, qizlaringiz, qullaringiz, cho‘rilaringiz, shahringizdagi Levi qabilasidan bo‘lganlar bilan xursandchilik qilinglar. Chunki levilarning siznikiga o‘xshagan ulushi ham, mulki ham yo‘qdir. 13 Ehtiyot bo‘linglar, kuydiriladigan qurbonligingizni duch kelgan joyda qilavermanglar. 14 Ularni faqat Egamiz qabilalaringiz orasidan tanlagan joyda qilinglar. Men sizlarga amr qilganning hammasini o‘sha yerda ado etinglar.
15 Bordi–yu, go‘sht yemoqchi bo‘lsangiz, hayvonni istagan paytingizda, Egangiz Xudo bergan barakaga yarasha, xohlagan shahringizda so‘yib, yeyishingiz mumkin. Odam pok bo‘lsa ham, harom bo‘lsa ham, kiyik va ohu go‘shtini yeganday, bu go‘shtdan yeyaversin. 16 Faqat qonni iste’mol qilmanglar, uni suvday yerga to‘kib tashlanglar. 17 Nazru qurbonliklaringizni shaharlaringizda yemanglar. Doningiz, sharobingiz va zaytun moyingizning o‘ndan bir qismini, mol, qo‘yingizning birinchi tug‘ilgan bolasini, bergan va’dangizga muvofiq qilinadigan nazrlaringizni, ko‘ngildan chiqarib beradigan qurbonliklaringizni, ehsonlaringizni 18 faqat Egangiz Xudo tanlagan joyda yenglar. Bularni Uning huzurida o‘g‘lingiz, qizingiz, qullaringiz, cho‘rilaringiz, shahringizdagi levilar bilan birga yeb, Egangiz Xudo ishingizga bergan barakadan sevininglar.
19 Yurtingizda yashar ekansiz, ehtiyot bo‘linglar, levilarni unutib qo‘ymanglar.
20 Egangiz Xudo sizlarga bergan va’daga ko‘ra, yerlaringizni kengaytiradi. Shunda ko‘nglingiz go‘shtni tusab: “Go‘sht yegim kelyapti”, deb aytsangiz, xohlaganingizcha go‘sht yeysiz. 21 Egangiz Xudo O‘zi ulug‘lanishi uchun tanlaydigan joy sizlar turgan joydan uzoqda bo‘lsa, men buyurganimday, U sizlarga bergan mol yoki qo‘ylardan so‘yib, shahringizda xohlaganingizcha go‘sht yesangiz bo‘ladi. 22 Pok yoki harom odam

bu go‘shtni ohu yoki kiyik go‘shtini yeganday tanovul qilaversin*. 23 Qonni esa aslo
iste’mol qilmanglar, chunki qon jondir, jonni go‘sht bilan birga yemanglar. 24 Qonni
iste’mol qilmay, suv singari, yerga to‘kib tashlanglar. 25 Sizlar ham, farzandlaringiz ham,
qonni iste’mol qilmanglar, shunda baxtiyor bo‘lasizlar. Egamizning oldida ma’qul ish
qilgan bo‘lasizlar. 26 Egamizga atagan ehsonlaringizni va va’da qilgan nazrlaringizni U
tanlagan joyga olib boringlar. 27 Kuydiriladigan qurbonliklaringizni, ularning qonini,
go‘shtini Egangiz Xudoning qurbongohida keltiringlar. Boshqa qurbonliklaringizning
qonini ham Egangiz Xudoning qurbongohi yoniga to‘kinglar, go‘shtini esa yesangiz
bo‘ladi. 28 Men berayotgan bu amrlarni bitta qoldirmay bajaringlar. Shunda o‘zlaringiz
ham, sizlardan keyingi farzandlaringiz ham to abad baxtli bo‘lasizlar. Negaki, Egangiz
Xudoning oldida to‘g‘ri, yaxshi ishlarni qilgan bo‘lasizlar.

Butparastlikka qarshi ogohlantirish

29 Sizlar yurtga kirib, u yerning xalqlariga hujum qilganingizda, Egangiz Xudo ularni
yo‘q qiladi. Sizlar ularning yerlariga joylashasizlar. 30 Shunda ehtiyot bo‘linglar, ularning
udumlarini qilib, tuzoqqa tushib qolmanglar. “Bu xalqlar xudolariga qanday xizmat
qilgan ekan–a?! Men ham ularday qilaman”, deb ularning xudolari haqida
surishtirmanglar. 31 Ularga xos usul bilan Egangiz Xudoga sig‘inmanglar. Axir, ular o‘z
xudolariga sig‘inganlarida jirkanch ishlar qiladilar, Egamiz esa bunday ishlardan
nafratlanadi. Ular hatto o‘g‘il–qizlarini xudolariga qurbonlik qilib, olovda yondiradilar.
32 Men sizlarga bergan amrlarni bitta qoldirmay bajaringlar. Bu amrlarga hech narsa
qo‘shmanglar ham, olib tashlamanglar ham.

13–BOB

1 Agar orangizda biror payg‘ambar yoki tush ta’birlovchi paydo bo‘lib: “Alomat yoki
mo‘jiza ko‘rsataman”, deb aytsa, 2 uning aytganlari bajo bo‘lsa, keyin u: “Yur, sen
bilmagan boshqa xudolarga ergashaylik, ularga xizmat qilaylik”, desa, 3 o‘sha
payg‘ambar yoki tush ta’birlovchining so‘zlariga quloq solmanglar. Egangiz Xudo: “Qani
bilay–chi, ular butun qalbi bilan, jonu dili bilan Meni sevadimi yoki yo‘qmi”, deb sizlarni
sinayotgan bo‘ladi. 4 Sizlar faqatgina Egangiz Xudoga ergashinglar. Undan qo‘rqinglar,
Uning amrlariga itoat etinglar. Egangizga quloq solinglar, Unga xizmat qilinglar, Unga
sodiq bo‘linglar. 5 Egangiz Xudo sizni Misr yurtidan olib chiqqan, Misrdagi qullikdan
ozod qilgan. O‘sha payg‘ambar yoki tush ta’birlovchi esa sizni Xudoyingizdan yuz
o‘girtirishga harakat qildi. Egangiz Xudo amr qilgan yo‘ldan sizni ozdirmoqchi bo‘ldi.
Shuning uchun uni o‘ldiringlar. Orangizdan yomonlikni yo‘q qilinglar.
6 Hatto aka–ukangiz yoki o‘g‘lingiz, qizingiz, sevikli xotiningiz yo jonajon do‘stingiz
sizni yashirincha o‘zingiz bilmagan, ota–bobolaringiz ham bilmagan begona xudolarga
sajda qilishga undashi mumkin. 7 Atrofingizda yashayotgan uzoq–yaqindagi, yerning bu
chetidan narigi chetigacha o‘rnashgan xalqlarning xudolariga sig‘inishga undashi
mumkin. 8 Ammo sizlar rozi bo‘lmanglar. Bunday odamga quloq solmanglar, unga
rahm–shafqat qilmanglar, uning yonini olmanglar. 9 Uni o‘ldiringlar. Birinchi bo‘lib sen,
keyin butun xalq unga tosh otinglar. 10 Uni toshbo‘ron qilib o‘ldiringlar. Chunki u sizlarni
Misrdagi qullikdan olib chiqqan Egangiz Xudodan yuz o‘girishga undadi. 11 Bu voqeani
Isroil xalqi eshitib qo‘rqadi, bundan keyin orangizda bunday qabihlik qilinmaydi.
12 Egangiz Xudo sizlarga yashash uchun berayotgan shaharlarning birortasida

13 manfur odamlar chiqib, ular shahar ahlini: “Yuringlar, o‘zlaringiz bilmagan boshqa
xudolarga xizmat qilaylik”, deb yo‘ldan urganini eshitsangiz, 14 so‘rab–surishtiringlar,
yaxshilab tekshiringlar. Bu jirkanch voqea haqiqatan yuz bergan bo‘lib, eshitganlaringiz
rost bo‘lib chiqsa, 15 o‘sha shaharning butun aholisini, hayvonlarigacha qilichdan
o‘tkazinglar. Shaharni va undagi hamma narsani butunlay vayron qilinglar. 16 O‘ljalarni
maydon o‘rtasiga yig‘inglar. Shaharni va u yerdagi hamma o‘ljani Egangiz Xudoga
bag‘ishlab, yondirib tashlanglar. U joy abadiy vayronaga aylansin, hech qachon qayta
tiklanmasin. 17 Yondiriladigan narsalardan hech birini o‘zingizga olmanglar. Shunda
Egamiz g‘azabidan tushadi, sizlarga mehr–shafqat ko‘rsatadi, rahm qiladi, ota–
bobolaringizga qasam ichib va’da berganiday sizlarni ko‘paytiradi. 18 Shuning uchun
sizlar Egangiz Xudoga quloq solishingiz kerak. Men bugun sizlarga berayotgan Uning
amrlariga itoat etib, Uning oldida to‘g‘ri ishlar qilishingiz kerak.

14–BOB

Azadorlarga man etilgan odatlar

1 Sizlar Egangiz Xudoning farzandlarisiz. Marhumga aza tutganingizda badaningizni
tilmang, sochingizning oldini qirmang*. 2 Sizlar Egangiz Xudoning muqaddas xalqisiz.
Egamiz yer yuzidagi barcha xalqlar orasidan sizlarni O‘z xalqi, O‘z xazinasi qilib tanlab
oldi.

Halol va harom hayvonlar

3 Jirkanch hayvonlarning go‘shtini yemang. 4 Mana bu hayvonlarni* yesangiz bo‘ladi:
mol, qo‘y, echki, 5 ohu, kiyik, bug‘u, yovvoyi echki, zubr, jayron, arxar. 6 Ayri tuyoq va
kavsh qaytaradigan har qanday hayvonni tanovul qilishingiz mumkin. 7 Lekin kavsh
qaytaradigan yoki ayri tuyoq hayvonlardan tuya, quyon va sug‘urni yemanglar, ular
kavsh qaytarsa ham, tuyog‘i ayrilmagan. Bu hayvonlar sizlar uchun haromdir.
8 Cho‘chqani ham yemanglar, uning tuyog‘i ayrilgan, lekin kavsh qaytarmaydi. U sizlar
uchun haromdir. Bu hayvonlarning go‘shtini yemanglar, murdasiga ham tegmanglar.

9 Suvda yashaydigan suzgichi va tangachalari bor har qanday jonivorni yesangiz
bo‘ladi. 10 Suzgichi va tangasi bo‘lmaganlarini yemang, ular sizga haromdir.

11 Halol qushlardan xohlaganingizning go‘shtini yesangiz bo‘ladi. 12 Quyidagi
qushlarning go‘shtini yeyish mumkin emas: qumoy, boltayutar, tasqara, 13 qirg‘iy, qizil
kalxat va uning zoti, 14 qarg‘a zoti, 15 tuyaqush, lochin, quloqli ukki, qarchig‘ay va uning
zoti, 16 yapaloq qush, boyo‘g‘li, oq boyo‘g‘li, 17 birqozon, jo‘rchi, baliqchi ukki, 18 laylak, oq
qarqara va uning zoti, sassiqpopishak, ko‘rshapalak. 19 Qanotli hasharotlar sizlarga
haromdir, ularni yemanglar. 20 Ammo ba’zi turdagi qanotli hasharotlarni yeyishingiz
mumkin*.

21 O‘limtikni yemang, uni shahringizda yashagan musofirga bering, u yeyaversin,
yoki o‘limtikni begonaga soting, sizlar Egangiz Xudoning muqaddas xalqisiz.

Uloqchani o‘z onasining sutida qaynatmang*.

Ushr berish haqida qonun

22 Har yili dalangizda o‘sadigan hamma narsadan, ekiningizning hosilidan o‘ndan
birini ajratinglar. 23 Bu ushrlaringizni* Egangiz Xudo O‘zi ulug‘lanishi uchun tanlaydigan
joyga olib boringlar. Doningiz, sharobingiz va zaytun moyingizning ushrlarini, mol va

qo‘ylaringizning birinchi tug‘ilgan bolalarini Uning huzurida yenglar. Shunday qilib,
Egangiz Xudodan har doim qo‘rqishni o‘rganasizlar. 24 Agar Egangiz Xudo tanlaydigan
bu joy sizdan uzoq bo‘lsa, shu sababdan Egangiz bergan barakaning ushrini u yerga olib
bora olmasangiz, 25 o‘sha narsalaringizni kumushga almashtiring. Kumushni olib,
Egangiz Xudo tanlaydigan joyga boring. 26 Mana shu kumushga ko‘nglingiz tusagan
narsani: mol, qo‘y, sharob, o‘tkir ichimlik va ko‘nglingiz xohlagan hamma narsani sotib
olib, u yerda Egangiz Xudo huzurida yeb, oilalaringiz bilan xursandchilik qilinglar.
27 Shahringizda yashagan levilarni unutib qo‘ymanglar, ularning siznikiga o‘xshagan
ulushi ham, mulki ham yo‘qdir. 28 Har uchinchi yil oxirida o‘sha yili olgan hosilingizning
o‘ndan bir qismini to‘liq olib, shahringizdagi omborlarda saqlab qo‘yinglar. 29 Ulushi
ham, mulki ham bo‘lmagan shahringizdagi levilar, shuningdek, musofir, yetim va
bevalar kelib, yeb to‘yadi. Shunda qilgan har bir ishingizga Egangiz Xudo baraka beradi.

15–BOB

Yettinchi yil

1 Har yettinchi yilning oxirida qarzlaringizdan kechinglar. 2 Qarzdan kechish
shundan iboratki, yaqiniga qarz bergan odam qarzidan kechsin. Isroil xalqidan bo‘lgan
birodaridan o‘sha qarzini so‘ramasin, chunki Egamiz qarzdan kechishni e’lon qildi.
3 Begonadan qarzingizni so‘rasangiz bo‘ladi. Isroil xalqidan bo‘lgan birodaringizdan esa
qarzingizni so‘ramang.
4 Sizlarning orangizda kambag‘al bo‘lmaydi. Egangiz Xudo mulk qilib berayotgan
yurtda sizlarga baraka beradi. 5 Faqat Egangiz Xudoga itoat etib, Men bugun sizlarga
berayotgan mana shu amrlarni bitta qoldirmay bajarishingiz kerak. 6 Egangiz Xudo O‘zi
va’da qilganday, sizlarga baraka berganda, ko‘p xalqlarga qarz berasiz, o‘zingiz esa
ulardan qarz olmaysiz. Ko‘p xalqlar ustidan hukmronlik qilasiz, ular esa sizlarning
ustingizdan hukmronlik qilmaydi.
7 Egangiz Xudo sizga beradigan yurtdagi shaharlaringizning birida Isroil xalqidan
birortasi kambag‘al bo‘lsa, unga nisbatan bag‘ritoshlik qilmang, ziqna bo‘lmang. 8 Ochiq
qo‘l bo‘ling, unga kerakli narsani yetarlicha qarzga bering. 9 Ehtiyot bo‘ling,
ko‘nglingizda yomon niyat qilmang, yettinchi yil, qarzdan kechish yili kelyapti, deb
kambag‘al birodaringizga nafrat bilan qaramang, unga yo‘q demang. Aks holda,
birodaringiz Egamizga sizdan noliydi, natijada siz gunoh orttirib olasiz. 10 Unga saxiylik
bilan qarz bering, buning uchun achinmang. Shunda Egangiz Xudo har bir ishingizga
baraka beradi. 11 Yer yuzida har doim kambag‘allar bo‘ladi. Shuning uchun sizlarga
amrim shuki, yurtingizdagi kambag‘al, muhtoj birodaringizga ochiq qo‘l bo‘ling.

Qullarga bo‘lgan munosabat

12 Birodaringizdan ibroniy erkak yoki ayol sizga o‘zini sotsa*, olti yil xizmat qilsin,
yettinchi yili uni ozod qilishingiz kerak. 13 Uni ozod qilganingizda, quruq jo‘natmang.
14 Unga saxiylik bilan mol–qo‘yingizdan, don, sharobingizdan bering, Egangiz Xudo
sizlarga ato etgan barakadan bering. 15 Yodingizda tuting: sizlar ham Misr yurtida qul
bo‘lgansiz, Egangiz Xudo sizlarni ozod qilgan. Shuning uchun men bugun sizlarga o‘sha
amrni berdim.
16 Agar qulingiz, sizni, oilangizni yaxshi ko‘raman, sizning xonadoningizda o‘zimga
to‘qman, siznikidan ketmayman, deb aytsa, 17 uni uyingiz eshigi yoniga olib boring.

Qulog‘ini eshikka qo‘yib, bigiz bilan teshing. Shunda u bir umr sizning qulingiz bo‘ladi, cho‘ringizni ham shunday qiling.

18 Qulingizni ozod qilayotganingizda afsuslanmang, chunki u olti yil ichida mardikorning haqiga arziydigan mehnatni qildi. Uni ozod qilsangiz, Egangiz Xudo qilgan har bir ishingizga baraka beradi.

Hayvonlarning birinchi tug‘ilgan bolalari

19 Mol–qo‘ylaringizning birinchi tug‘ilgan erkagini Egangiz Xudoga bag‘ishlang. Birinchi tug‘ilgan buqangizni ishlatmang, birinchi tug‘ilgan qo‘yingizning yungini olmang. 20 Bularning go‘shtini Egamiz tanlaydigan joyda, o‘zingiz oilalaringiz bilan birga har yili Uning huzurida yenglar. 21 Agar o‘sha hayvon cho‘loq yoki ko‘r bo‘lsa yo uning boshqa bir nuqsoni bo‘lsa, uni Egangiz Xudoga qurbonlik qilmang. 22 Uni shaharlaringizda yeyaveringlar. Pok odam ham, harom odam ham, ohu va kiyikni yeganday, uning go‘shtini yesa bo‘ladi. 23 Faqat qonini iste’mol qilmang. Qonni suv singari, yerga to‘kib tashlang.

16–BOB

Fisih ziyofati va Xamirturushsiz non bayrami

1 Abib oyida* Egangiz Xudoning Fisih ziyofatini nishonlanglar. Egangiz Xudo sizlarni Misrdan Abib oyida tunda olib chiqqan. 2 Egamiz O‘zi ulug‘lanishi uchun tanlaydigan joyga boringlar, mol va qo‘ylaringizdan Egangiz Xudoga Fisih qurbonligini keltiringlar. 3 Qurbonlik go‘shtiga xamirturushli non qo‘shib yemanglar. Sizlar Misrdan shoshilinch chiqib ketganingizda xamirturushsiz non yegan edingizlar, shuning uchun yetti kun davomida xamirturushsiz non yenglar*. Bu nonni mashaqqatli kunlarda yeyiladigan non deb atashadi. O‘sha nonni yenglar, shunda Misrdan chiqqan kuningizni bir umr yodingizda tutasizlar. 4 Yetti kun davomida yurtingizning biror joyida xamirturush bo‘lmasin. Bayramning birinchi kuni kechqurun keltirgan qurbonligingiz go‘shtidan ertalabgacha hech nima qolmasin.

5 Egangiz Xudo sizlarga berayotgan shaharlarning birontasida Fisih qurbonligini keltirish mumkin emas. 6 Fisih qurbonligini faqatgina Egangiz O‘zi ulug‘lanishi uchun tanlaydigan joyda keltiringlar. Buni quyosh botadigan paytda, sizlar Misrdan chiqqan soatlarda qilinglar. 7 Egangiz Xudo tanlaydigan joyda qurbonligingizni pishirib yeb, ertalab chodirlaringizga qaytib ketaveringlar. 8 Keyingi olti kun davomida xamirturushsiz non yenglar. Yettinchi kun Egangiz Xudoga bag‘ishlangan muqaddas yig‘in bo‘ladi. Shu kuni hech qanday ish qilmanglar.

Hosil bayrami

9 Hosilga* o‘roq solingan kundan boshlab yetti haftani sananglar. 10 Keyin Egangiz Xudo bergan barakaga yarasha ko‘ngildan chiqarib nazr qilinglar. Egangiz Xudo uchun Hosil bayramini* nishonlanglar. 11 O‘zlaringiz, o‘g‘illaringiz, qizlaringiz, qullaringiz, cho‘rilaringiz, shahringizdagi levilar, orangizdagi musofirlar, yetim va bevalar bilan birga Egangiz Xudo oldida xursandchilik qilinglar. Bularni Egangizning O‘zi ulug‘lanishi uchun tanlaydigan joyda o‘tkazinglar. 12 Misrda qul bo‘lganingizni esingizdan chiqarmasdan, mana shu qonun–qoidalarni bitta qoldirmay bajaringlar.

Chayla bayrami

13 Doningizni yanchib, sharobingizni tayyorlab olganingizdan keyin* yetti kun
davomida Chayla bayramini nishonlanglar. 14 Bayramda o‘g‘illaringiz, qizlaringiz, qul va
cho‘rilaringiz, shahringizda istiqomat qilayotgan levilar, musofirlar, yetim va bevalar
bilan birga xursandchilik qilinglar. 15 Egangiz Xudo tanlagan joyda yetti kun davomida
Unga atab bayram qilinglar. Egangiz Xudo hosilingizga va qilgan har bir ishingizga
baraka beradi. Shu tariqa, albatta xursandchilik qilinglar.
16 Xamirturushsiz non bayramini, Hosil bayramini va Chayla bayramini nishonlash
uchun barcha erkaklaringiz yilda uch marta Egangiz Xudo tanlagan joyga, Uning
huzuriga kelsin. Hech kim Egamizning oldiga quruq kelmasin. 17 Har biringiz Egangiz
Xudo bergan barakaga yarasha in’om keltiringlar.

Odil hukm

18 Egangiz Xudo sizlarga beradigan har bir shaharga hakamlar va nazoratchilar
tayinlanglar. Ular xalqni adolat bilan hukm qilsin. 19 Hukm qilayotganda adolatsizlik
qilmasin, tarafkashlik qilmasin, pora olmasin. Pora donolarning ko‘zini ko‘r qiladi,
haqlarni nohaqqa chiqaradi. 20 Adolatga, faqat adolatga ergashing. Shunda yashaysizlar,
Egangiz Xudo beradigan yurtga egalik qilasizlar.
21 Egangiz Xudo uchun quradigan qurbongoh yoniga Asheraga* atalgan ustunlarni
yoki 22 butsimon toshlarni o‘rnatmanglar. Egangiz Xudo bulardan nafratlanadi.

17–BOB

1 Nuqsoni yoki kamchiligi bor mol–qo‘ylarni Egangiz Xudoga qurbonlik qilmanglar.
Bu Egangiz Xudoga jirkanchdir.
2 Egangiz Xudo sizga berayotgan shaharlarning birida orangizdan birorta erkak yoki
ayol Egangiz oldida qabihlik qilib, Uning ahdini buzsa, 3 begona xudolarga xizmat qilsa,
o‘sha xudolarga yoki quyoshga, oyga va samoviy jismlarga topinsa, taqiqlangan bu
ishlarni qilsa, 4 bu voqeadan sizlar xabardor bo‘lsangiz, eshitganlaringizni yaxshilab
tekshiringlar. Isroil xalqi orasida haqiqatan ham bunday jirkanch ish qilingan bo‘lsa,
5 o‘sha gunohkor erkak yoki ayolni shahar darvozasidan tashqariga olib chiqib,
toshbo‘ron qilib o‘ldiringlar. 6 Odam faqat ikkita yoki uchta guvohning so‘zi bilan o‘limga
hukm qilinishi mumkin, bitta guvohning so‘zi bilan o‘ldirilmasin. 7 Gunohkorga birinchi
bo‘lib guvohlar tosh otsin, keyin butun xalq uni toshbo‘ron qilsin. Shunday qilib,
orangizdan yomonlikni yo‘q qilinglar.
8 Agar shahringizda qon to‘kish, haq–huquq talashish va zo‘ravonlik kabi mojarolarni
hukm qilish qiyin bo‘lsa, Egangiz Xudo tanlaydigan joyga boringlar. 9 Levi
ruhoniylarining va o‘sha vaqtda xizmatda bo‘lgan hakamning oldiga borib, ulardan
so‘ranglar. Ular hukm chiqaradi. 10 Ular chiqargan hukm bo‘yicha ish tutinglar,
o‘rgatganlarini bitta qoldirmay bajaringlar. 11 Tushuntirgan qonunni va qonunga asosan
chiqargan hukmni to‘liq bajaringlar. Ularning aytganlaridan chapga ham, o‘ngga ham
og‘manglar. 12 Egangiz Xudoning xizmatida turgan ruhoniy va hakamning gapiga quloq
solmay, o‘zboshimcha ish tutgan odam o‘lishi kerak. Shunday qilsangiz, Isroil xalqi
orasidan yomonlikni yo‘q qilgan bo‘lasizlar. 13 Butun xalq bu voqeani eshitib qo‘rqadi,
bundan keyin o‘zboshimcha ish qilmaydigan bo‘ladi.

Shoh haqida ko‘rsatmalar

14 Egangiz Xudo sizlarga beradigan yurtga borib, u yerga joylashib, egalik qilasizlar.
Shundan keyin, “Atrofimizdagi xalqlarga o‘xshab biz ham ustimizdan shoh qo‘yaylik”,
deysiz. 15 Ko‘taradigan shohingiz albatta Egangiz Xudo tomonidan tanlangan bo‘lsin.
Shoh o‘z xalqingizdan bo‘lsin. Begona bo‘lgan musofirni ustingizdan shoh qilishingiz
mumkin emas. 16 Shoh o‘zi uchun ot ko‘paytirmasin, ot sotib olish uchun odamlarni
Misrga jo‘natmasin. Chunki Egamiz sizlarga: “U yerga qaytib bormanglar”, degan.
17 Tayinlangan shoh xotinlarni ko‘paytirmasin, aks holda, Egamizdan yuragi soviydi*.
O‘zi uchun ko‘p miqdorda oltin va kumushni yig‘masin. 18 U shohlik taxtiga o‘tirganda,
levi ruhoniylari saqlagan qonunlardan o‘zi uchun bir nusxa ko‘chirtirib olsin.
19 Qonunlarning o‘sha nusxasi doimo shohning yonida bo‘lsin. Shoh uni har kuni, umri
davomida o‘qisin, toki o‘zining Egasi Xudodan qo‘rqishni o‘rgansin, qonun va
farmonlarning so‘zlarini bitta qoldirmay bajarsin. 20 O‘zini birodarlaridan ustun
qo‘ymasin, amrlardan chapga ham, o‘ngga ham og‘masin. Shunda o‘zi ham, o‘g‘illari ham
Isroil ustidan uzoq yillar hukmronlik qiladilar.

18–BOB

Ruhoniylarning ulushi

1 Levi ruhoniylari, butun Levi qabilasi qatorida, Isroilda ulush ham, mulk ham
olmaydilar. Ular Egamizga keltirilgan nazr va qurbonliklardan yeydilar. 2 Birodarlari
orasida ularning ulushi bo‘lmaydi. Egamiz Levi qabilasiga: “Men O‘zim sizlarning
ulushingiz bo‘laman”*, deb va’da bergan edi.
3 Qurbonlik qilingan mol yoki qo‘yning yelka, jag‘ va ichak–chovoqlari ruhoniylarga
berilsin. 4 G‘allangizning ilk hosilini, eng birinchi tayyorlagan sharobingizni va zaytun
moyingizni, qo‘ylaringizning birinchi qirqilgan yungini ruhoniylarga beringlar. 5 Chunki
Egangiz Xudo, Levi qabilasi va ularning avlodlari har doim Menga xizmat qilishsin, deb
ularni qabilalaringiz orasidan tanlab oldi.
6 Agar biror levi Isroildagi o‘zi yashab turgan shahardan Egamiz tanlagan joyga o‘z
xohishi bilan borsa, 7 u yerda Egamizga xizmat qilgan levi birodarlari singari, Egasi Xudo
nomidan xizmat qila oladi. 8 Oilasining mulkini sotishdan kelgan daromadi bo‘lsa ham,
boshqa levilar qatori bir xil ulush yesin.

Butparast xalqlarning qabih odatlari haqida ogohlantirish

9 Egangiz Xudo beradigan yurtga kirganingizda, u yer xalqlarining jirkanch odatlarini
o‘rganmanglar. 10 O‘g‘li yoki qizini olovda qurbon qiladigan*, folbin, bashoratgo‘y,
romchi, sehrgar, 11 issiq–sovuq qiladigan, arvoh chaqiruvchi, o‘liklardan maslahat
so‘raydiganlar orangizda bo‘lmasin. 12 Egamiz bundaylardan jirkanadi. Mana shu
jirkanch odatlari uchun Egangiz Xudo o‘sha xalqlarni sizning oldingizdan haydab
chiqaryapti. 13 Egangiz Xudoga butunlay sodiq qoling.

Payg‘ambar yuborish haqida va’da

14 Sizlar yurtini olayotgan o‘sha xalqlar bashoratgo‘ylar va folbinlarning gapiga quloq
soladilar. Sizlarning bunday qilishingizga esa Egangiz Xudo ruxsat bermaydi. 15 Egangiz
Xudo sizlar uchun o‘z xalqingiz orasidan menga o‘xshagan bir payg‘ambar chiqaradi.
Unga quloq solinglar. 16 Siz Sinay tog‘ida* yig‘ilgan kuningizda Egangiz Xudodan o‘zingiz

uni tilab olgandingiz, zotan, siz shunday degan edingiz: “Egamiz Xudoning ovozini endi
eshitmaylik, mana shu buyuk olovni ham boshqa koʻrmaylik, aks holda, oʻlamiz.”
17 Oʻshanda Egamiz menga shunday dedi: “Ularning aytganlari toʻgʻri. 18 Ular uchun oʻz
xalqi orasidan senga oʻxshagan bir paygʻambar chiqaraman, Men unga nima aytishni
oʻrgataman. Oʻsha paygʻambar bergan amrlarimning hammasini ularga aytadi. 19 U
Mening nomimdan gapiradi, unga quloq solmagan odamni Men Oʻzim jazolayman.
20 Ammo biror paygʻambar Men buyurmagan soʻzni Mening nomimdan gapirishga jur’at
qilsa yoki boshqa xudolar nomidan gapirsa, u paygʻambar oʻlishi kerak.”
21 Koʻnglingizda: “Bu soʻzlar Egamizdanmi yoki yoʻqmi, biz qanday qilib bilamiz?”
deb oʻylashingiz mumkin. 22 Agar biror paygʻambar Egamizning nomidan gapirsa–yu,
oʻsha voqea yuz bermasa, demak, bu soʻzni Egamiz aytmagan boʻladi. Paygʻambar
oʻzicha gapirgan, undan qoʻrqmanglar.

19–BOB

Panoh shaharlar

1 Egangiz Xudo sizlarga beradigan yurtning xalqlarini yoʻq qilganda, sizlar oʻsha
yurtni mulk qilasizlar, shaharlariga, uylariga joylashasizlar. 2-3 Oʻshanda yurtni* uch
qismga boʻlinglar. Har bir qismida bittadan panoh shahar ajratinglar. Oʻsha shaharlarga
boradigan yoʻllar quringlar, toki birovni oʻldirib qoʻygan odam oʻsha shaharlarning
biriga qochib bora olsin. 4 Agar u birovni adovat qilmay, bexosdan oʻldirib qoʻygan
boʻlsa, oʻsha shaharlarning biriga qochib, tirik qoladi. 5 Masalan, bir odam boshqasi bilan
daraxt kesgani oʻrmonga bordi, deylik. U daraxt kesmoqchi boʻlib boltani koʻtarganda,
bolta sopidan chiqib ketib, sherigiga borib tegsa–yu, sherigi oʻlib qolsa, qotil oʻsha
shaharlarning biriga qochib borib tirik qoladi. 6 Aks holda, qasoskor qotilning orqasidan
quvishi mumkin, yoʻl uzoq boʻlganidan unga yetib olib, oʻldirishi mumkin. Lekin u
oʻlimga loyiq emas, chunki marhumga oldindan uning adovati yoʻq edi. 7 Uchta shahar
ajratinglar, deb sizlarga buyurganimning sababi shudir.
8-9 Egangiz Xudoni seving, har doim Uning yoʻlidan yuring, deb sizlarga bugun amr
qildim. Agar sizlar bu amrlarni bitta qoldirmay bajarsangiz, Egangiz Xudo ota–
bobolaringizga qasam ichib, bergan va’dasiga koʻra, yerlaringizni kengaytiradi, va’da
qilgan butun yurtni sizga beradi. Shunda sizlar ajratgan uchta shahringizga yana uchta
panoh shahar qoʻshinglar, 10 toki Egangiz Xudo sizlarga mulk qilib berayotgan yurtda
aybsizning qoni toʻkilmasin. Sizlar qon uchun javobgar boʻlib qolmanglar.
11 Lekin birorta odam boshqasini adovat bilan poylab turib, hujum qilib oʻldirsa,
soʻng oʻsha shaharlarning birortasiga qochib borsa, 12 qotilning ona shahridagi
oqsoqollar qotil orqasidan odam yuborib, uni oldirib kelsin. Qotilni qasoskorning qoʻliga
topshirsin. Qotil oʻldirilishi kerak. 13 Unga rahm qilmanglar, Isroilni aybsizning qonidan
tozalanglar. Shunda baxtiyor boʻlasiz.

Qadimiy chegaralar

14 Egangiz Xudo sizlarga mulk qilib berayotgan yerda, ota–bobolaringiz ilgaridan
belgilagan qoʻshningizning chegarasini surmanglar.

Guvohlar haqida

15 Birovni gunoh yoki jinoyat qilishda ayblash uchun bitta guvoh yetarli emas. Ish

ikkita yoki uchta guvohning so‘zlari asosida ko‘rib chiqiladi. 16 Agar soxta guvoh yomon
niyat bilan birortasini ayblasa, 17 janjallashayotgan ikkala odam Egamizning huzuriga
borsinlar. O‘sha kunlarda xizmatini o‘tayotgan ruhoniylarga va hakamlarga
uchrashsinlar. 18 Hakamlar ishni yaxshilab ko‘rib chiqishsin. Agar guvoh birodariga
qarshi yolg‘on guvohlik berayotgan bo‘lsa, 19 birodariga qarshi o‘ylagan niyatini o‘ziga
qaytaringlar. Shu tariqa orangizdan yomonlikni yo‘q qilinglar. 20 Boshqalar bo‘lib o‘tgan
voqealarni eshitib, qo‘rqadilar, orangizda bunday jinoyatni boshqa qilmaydilar.
21 Bundaylarga rahm qilmanglar: jon evaziga jon, ko‘z evaziga ko‘z, tish evaziga tish, qo‘l
evaziga qo‘l, oyoq evaziga oyoq.

20–BOB

Jang haqida

1 Dushmanlaringizga qarshi urushga borganingizda, otlarni, aravalarni,
o‘zingiznikidan ko‘proq bo‘lgan lashkarni ko‘rsalaringiz, ulardan qo‘rqmanglar. Chunki
sizlarni Misrdan olib chiqqan Egangiz Xudo sizlar bilandir. 2 Jangga kirishingizdan oldin,
ruhoniy lashkarning oldiga chiqsin, 3 ularga shunday desin: “Quloq sol, ey Isroil xalqi!
Bugun sizlar dushmanlaringizga qarshi jangga chiqyapsizlar. Dadil bo‘linglar,
qo‘rqmanglar, dushman oldida vahimaga tushmanglar. 4 Egamiz Xudoning O‘zi sizlar
bilan urushga boradi! Sizlar uchun dushmanlaringizga qarshi jang qiladi, sizlarga
g‘alaba beradi!”

5 Nazoratchilar lashkarga shunday deb aytsin: “Orangizda yangi uy qurib, o‘sha uyini
hali Xudoga bag‘ishlab ulgurmagan birorta odam bormi? Bor bo‘lsa, uyiga qaytsin. Agar
u jangda halok bo‘lsa, boshqa odam uning uyini bag‘ishlaydi. 6 Uzumzor ekib, hali
mevasidan yemagan odam bormi? Agar bor bo‘lsa, uyiga qaytib ketsin. U jangda halok
bo‘lsa, boshqa odam uning uzumzori mevasidan birinchi bo‘lib tatiydi. 7 Biror qizga
unashtirilib, hali uylanmagan yigit bormi? Agar bor bo‘lsa, uyiga qaytib ketsin. U jangda
halok bo‘lsa, boshqa odam o‘sha qizga uylanadi.”

8 Nazoratchilar yana shunday deyishsin: “Orangizda qo‘rquvdan yuragini oldirib
qo‘ygan odam bormi? Bor bo‘lsa, uyiga qaytib ketsin. Bo‘lmasa birodarlari ham unga
o‘xshab cho‘chib qoladi.” 9 Nazoratchilar lashkarga shu gaplarni aytib bo‘lgandan keyin,
lashkarboshilar bosh bo‘lsin.

10 Biror shaharni olish uchun yaqinlashganingizda, shahar ahliga sulh taklif qiling.
11 Ular sulhga rozi bo‘lib, darvozalarini ochib bersa, shaharning butun aholisi sizlarga
qarol bo‘lib xizmat qiladi. 12 Agar shahar ahli sulhga rozi bo‘lmay, sizlar bilan jang qilsa,
shaharni qamal qilinglar. 13 Egangiz Xudo u shaharni sizning qo‘lingizga berganda, butun
erkak zotini qilichdan o‘tkazinglar. 14 Faqat ayollarni, bolalarni, mollarni va shaharda
qolgan hamma narsani o‘lja qilib olsangiz bo‘ladi. Egangiz Xudo sizlarning qo‘lingizga
bergan, dushmanlardan olgan o‘ljalarni ishlatishingiz mumkin. 15 Sizlar egalik qiladigan
yurtingizdan uzoqda joylashgan shaharlarni shunday qilinglar.

16 Lekin Egangiz Xudo sizlarga mulk qilib berayotgan yurtdagi shaharlarni qo‘lga
olganingizda bironta jonni tirik qoldirmanglar. 17 Egangiz Xudo sizlarga amr etganiday,
Xet, Amor, Kan’on, Pariz, Xiv, Yobus xalqlarini tamomila qirib bitiringlar. 18 Toki ular
o‘zlarining xudolariga qilgan jirkanch odatlarini sizlarga o‘rgatmasin. Aks holda, sizlar
Egangiz Xudoga qarshi gunoh qilgan bo‘lasizlar.

19 Agar biror shaharni qo‘lga kiritish uchun uzoq vaqt qamal qilib tursalaringiz, u
yerdagi mevali daraxtlarni kesmanglar. O‘sha daraxtlarning mevasini yeyishingiz
mumkin, daraxtlarning o‘zini esa kesib tashlamanglar. Axir, daladagi daraxtlar odam
emas–ku, qurshovdan qochib chiqsa! 20 Meva bermaydigan daraxtlarni esa kesishingiz
mumkin. Shahar qulamaguncha qamal inshootlarini* qurishda o‘sha daraxtlardan
foydalansangiz bo‘ladi.

21–BOB

Qotil topilmaganda ko‘riladigan choralar

1 Egangiz Xudo sizlarga mulk qilib berayotgan yurtning biror dalasida odam jasadi
topilsa va uni kim o‘ldirgani noma’lum bo‘lsa, 2 oqsoqollar va hakamlar murda bilan
atrofdagi shaharlar oralig‘idagi masofani o‘lchashsin. 3 Murdaga eng yaqin shaharning
oqsoqollari hali qo‘shga qo‘shilmagan, bo‘yinturuq solinmagan g‘unajinni olishsin.
4 Shahar oqsoqollari yerga ishlov berilmagan, urug‘ ekilmagan, suv oqib turadigan
soylikka bu g‘unajinni olib borishsin. O‘sha soylikda g‘unajinning bo‘ynini sindirishsin.
5 Levi ruhoniylari bu yerga kelishsin. Egangiz Xudo “Levi nasli Menga xizmat qilsin,
Mening nomim bilan xalqni duo qilsin”, deb ularni tanlagan. Barcha janjalli ishlar va
zo‘ravonlik masalalari ularning so‘zi bilan hal qilinadi. 6 Murdaga eng yaqin bo‘lgan
shaharning oqsoqollari soylikda bo‘yni sindirilgan g‘unajinning tepasida qo‘llarini
yuvishsin. 7 Keyin ular shunday desin: “Bu odamning qonini bizning qo‘llarimiz to‘kkani
yo‘q. Kim qilganini ko‘zlarimiz ko‘rgani yo‘q. 8 Ey Egamiz! O‘zing Misrdan ozod qilgan
xalqing Isroilni kechirgin, xalqing Isroilni to‘kilgan aybsiz qonga javobgar qilmagin.”
Shundan so‘ng ular to‘kilgan qonga javobgarlikdan xoli bo‘ladilar. 9 Shunday
qilsangizlar, Egamizning oldida to‘g‘ri ish qilgan bo‘lasizlar, aybsizning qonidan
o‘zingizni tozalaysizlar.

Asiralar haqida

10 Egangiz Xudo jangda dushmanlaringizni sizlarga mag‘lub etganda, ularni asirga
olganingizda, 11 asirlar orasida chiroyli bir ayolni ko‘rib, uni sevib qolganingizdan unga
uylanmoqchi bo‘lsangiz, 12 uni uyingizga olib keling. O‘sha ayol sochini qirib tashlasin,
tirnoqlarini olsin. 13 Asirlikda kiygan kiyimlarini almashtirsin. Bir oy davomida ota–
onasi uchun aza tutib, uyingizda yashasin. Shundan keyin siz u ayolning oldiga kira
olasiz, siz uning eri, u esa sizning xotiningiz bo‘ladi. 14 Agar o‘sha ayol sizga yoqmay
qolsa, uni ozod qiling. Uni sotmang, unga qulday munosabatda bo‘lmang, chunki uni
xotiningiz bo‘lishga majbur qilgansiz.

To‘ng‘ich o‘g‘ilning merosi

15 Agar birortasining ikkita xotini bo‘lsa–yu, birini yaxshi ko‘rib, ikkinchisini yaxshi
ko‘rmasa, ikkalasi ham unga o‘g‘il tug‘ib bersa, to‘ng‘ichi yaxshi ko‘rmagan xotinining
o‘g‘li bo‘lsa, 16 o‘g‘illariga meros bo‘lib berayotganda, yaxshi ko‘rgan xotinning o‘g‘lini
ustun qo‘ymasin, unga to‘ng‘ich o‘g‘il huquqini bermasin. 17 Yaxshi ko‘rmagan xotinning
o‘g‘lini to‘ng‘ich deb tan olsin, unga mol–dunyosidan ikki hissa meros bersin. Chunki
o‘sha o‘g‘il otasi qudratining ilk hosilidir. To‘ng‘ichlik huquqi o‘sha o‘g‘ilga tegishlidir.

Itoatsiz o‘g‘il

18 Agar birortasining o‘g‘li ota–onasining gapiga quloq solmaydigan, o‘jar va itoatsiz

bo‘lsa, uni jazolaganlarida ham gaplariga kirmasa, 19 ota–onasi u o‘g‘ilni shahar darvozasida xizmat qiladigan shahar oqsoqollari oldiga olib kelsin. 20 Ota–onasi oqsoqollarga: “Bu o‘g‘limiz o‘jar va itoatsizdir. U bizning gapimizga quloq solmaydi. U ochko‘z va mayxo‘rdir”, desin. 21 Shundan keyin shahar erkaklari o‘sha yigitni toshbo‘ron qilib o‘ldirsin. Shunday qilib, orangizdan yomonlikni yo‘q qilinglar. Butun Isroil xalqi bu voqeani eshitib, qo‘rqadi.

Jinoyatchining jasadi

22 Agar birortasi o‘lim hukmiga loyiq gunoh qilsa, sizlar uni o‘ldirib, jasadini tik o‘rnatilgan xodaning uchiga qoqsangiz, 23 o‘sha jasad kechasi bilan xodada osig‘liq qolmasin. Uni o‘sha kuniyoq dafn qilinglar, chunki yog‘ochga qoqilgan odam Xudo tomonidan la’natlangandir. Egangiz Xudo sizga mulk qilib berayotgan yurtni harom qilmanglar.

22–BOB

Har xil qonunlar

1 Birodaringizning adashib qolgan molini yoki qo‘yini ko‘rib qolganingizda, o‘zingizni ko‘rmaganga olmang, uni albatta egasiga qaytarib olib boring. 2 Agar hayvonning egasi sizdan uzoqda yashasa yoki siz egasini tanimasangiz, uyingizga olib boring. Egasi kelib olib ketmaguncha unga qarab turing, keyin qaytarib bering. 3 Birodaringizning eshagiga ham, kiyimiga ham, siz topib olgan har qanday narsasiga shunday munosabatda bo‘ling. O‘zingizni ko‘rmaganga olmang.

4 Birodaringizning eshagi yoki ho‘kizi yo‘lda yotib qolganini ko‘rsangiz, o‘zingizni ko‘rmaganga olmang, ularni turg‘izishga yordam bering.

5 Ayol erkakning kiyimini kiymasin, erkak esa ayolning libosini kiymasin. Bunday ish qiladiganlarning hammasidan Egangiz Xudo jirkanadi.

6 Yo‘lda ketayotganingizda daraxtdagi yoki yerdagi qush iniga duch kelsangiz, qush tuxum bosgan yoki polaponlari bilan o‘tirgan bo‘lsa, onasini bolalari bilan olmang. 7 O‘zingizga faqat polaponlarini olishingiz mumkin, onasini esa qo‘yib yuboring. Shunda baxtiyor bo‘lib, umringiz uzoq bo‘ladi.

8 Yangi uy qursangiz, tomingiz atrofida to‘siq quring. Shunda birortasi tomingizdan yiqilib o‘lsa*, oilangiz javobgar bo‘lmaydi.

9 Uzumzoringiz egatlariga boshqa turdagi urug‘ ekmang. Aks holda, uzumzoringizdan va ekkan urug‘ingizdan olgan jamiki hosilni Egamizga bag‘ishlashingizga to‘g‘ri keladi.

10 Ho‘kiz bilan eshakni birga qo‘shga qo‘shmang.

11 Ustingizga jun va zig‘irpoyadan aralashtirib to‘qilgan kiyimni kiymang.

12 To‘ningizning etagiga popuk qilib osib yuring.

Jinsiy aloqaga oid qonunlar

13 Birortasi uylanib, qiz bilan yotgandan so‘ng uni yoqtirmay qolsa, 14 qizni yomon otliq qilib, men bu qizga uylandim, u esa qiz chiqmadi, deb bahona qilsa, 15 qizning ota–onasi qizlik belgilarini oqsoqollarga ko‘rsatish uchun shahar darvozasiga olib borsin. 16 Qizning otasi oqsoqollarga shunday aytsin: “Qizimni mana bu kishiga uzatgan edim. Endi u qizimni yoqtirmay qolibdi. 17 Qizingiz qiz chiqmadi, deb bahona qilyapti. Mana

qizimning qizlik belgilari”, deb shahar oqsoqollari oldiga o‘sha matoni yoysin. 18 Shahar
oqsoqollari o‘sha kishini olib kelib, jazolasin. 19 Oqsoqollar unga yuz bo‘lak kumush*
jarima solsinlar. U Isroil xalqining bokira qizini yomon otliqqa chiqargani uchun
kumushni qizning otasiga bersinlar. Qiz u odamning xotini bo‘lib qolaversin, u odam
qizdan umri bo‘yi ajralishi mumkin emas.
20 Lekin u odamning aytganlari to‘g‘ri bo‘lib, qiz bokira bo‘lmasa, 21 qizni otasining
eshigi oldiga olib kelishsin. Shahar erkaklari u qizni toshbo‘ron qilib o‘ldirsin. U
otasining uyida yashagan paytda fohishalik qilib, Isroil xalqi orasida sharmandalarcha
ish qildi. Shu tariqa orangizdan yomonlikni yo‘q qiling.
22 Agar biror erkak oilali xotin bilan yotsa va bu ma’lum bo‘lib qolsa, ikkovi — xotin
ham, xotin bilan yotgan erkak ham o‘ldirilsin. Shu tariqa Isroildan yomonlikni yo‘q
qiling.
23 Agar biron qiz unashtirilgan bo‘lsa–yu, shaharda birortasi o‘sha qizni uchratib
qolib, u bilan yotsa, 24 ikkovini ham o‘sha shaharning darvozasi oldiga olib kelishsin. Qiz
shaharda bo‘la turib, baqirmagani uchun jazolansin. Erkak esa birovning xotinini*
sharmanda qilgani uchun jazolansin. Ikkovini ham toshbo‘ron qilib o‘ldiring. Shu tariqa
orangizdan yomonlikni yo‘q qiling.
25 Agar birorta erkak unashtirilgan qizni dalada uchratib qolib, uni ushlab zo‘rlasa,
o‘sha qiz bilan yotgan erkaknigina o‘ldirish kerak. 26 Qizga hech narsa qilmanglar. U
qizning o‘limga loyiq aybi yo‘q, bu xuddi birorta odam boshqasiga hujum qilib o‘ldirgani
kabidir. 27 Chunki o‘sha erkak qizni dalada ushlab olgan, qiz yordam so‘rab baqirgan
bo‘lishi mumkin. Ammo uni qutqaradigan hech kim bo‘lmagan.
28 Agar birortasi unashtirilmagan qizni uchratib qolsa, qizni ushlab, u bilan yotsa,
ammo ikkovini ushlab olishsa, 29 o‘sha qiz bilan yotgan kishi qizning otasiga ellik bo‘lak
kumush* berishi kerak. Qiz esa uning xotini bo‘lsin. O‘sha odam qizni sharmanda qilgani
uchun umri bo‘yi u qizdan ajralishi mumkin emas.
30 Hech kim otasining xotiniga uylanmasin, bunday qilib otasini sharmanda qilmasin.

23–BOB

Egamizning jamoasiga kira olmaydigan odamlar

1 Jinsiy a’zosi kesib tashlangan yoki moyagi ezilgan odamga Egamiz jamoasi yig‘inida
ishtirok qilish man etiladi. 2 Noqonuniy tug‘ilgan bola Egamiz jamoasiga kirolmaydi,
uning o‘ninchi avlodigacha birorta avlodi ham Egamiz jamoasiga kirolmaydi.
3 Ommonliklar va Mo‘abliklar Egamiz jamoasiga kirolmaydi, ularning o‘ninchi
avlodigacha birorta avlodi Egamiz jamoasiga aslo kirolmaydi. 4 Chunki Misrdan chiqib
kelayotganingizda ular yo‘lda sizlarni non va suv bilan kutib olmadilar. Ular Oram–
Naxrayimdagi* Pato‘r shahridan Bavo‘r o‘g‘li Balomni sizlarni la’natlash uchun yolladi*.
5 Lekin Egangiz Xudo Balomga quloq solishni xohlamadi. Egangiz Xudo sizlarni sevgani
uchun Balomning la’natini barakaga aylantirdi. 6 Tirik ekansiz, ularning tinchligini,
farovonligini hech qachon ko‘zlamanglar. 7 Edomliklardan esa hazar qilmanglar, chunki
ular sizlarning qarindoshlaringizdir*. Misrliklardan ham hazar qilmanglar, chunki sizlar
ularning yurtida musofir bo‘lgan edingizlar. 8 Ulardan tug‘ilgan uchinchi avlod bolalari
Egamiz jamoasiga kirsa bo‘ladi.

Qarorgohni halol saqlash

9 Dushmanlaringiz bilan jang qilishga borganingizda, har qanday haromlikdan
saqlaning. 10 Agar orangizdan birortasi, kechasi maniy oqqani tufayli harom bo‘lib qolsa,
u qarorgohdan chiqib ketsin. U qarorgohda qolishi mumkin emas. 11 Kech kirayotganda
yuvinib, quyosh botgandan keyin qarorgohga kirishi mumkin.
12 Qarorgohning tashqarisida hojat chiqarishingiz uchun joy bo‘lsin. 13 Qurol–
aslahangiz orasida kurakchangiz ham bo‘lsin, ehtiyojingizni qondirish uchun chuqurcha
kovlab, keyin uni ko‘mib qo‘ying. 14 Qarorgohingizni pok saqlang, chunki Egangiz Xudo
sizlarga najot berish va dushmanlaringiz ustidan g‘alaba qozonishingiz uchun sizlar
bilan qarorgohdadir. Agar U orangizda uyatli ishlarni ko‘rsa, sizlardan yuz o‘giradi.

Har xil qonunlar

15 O‘z egasidan qochib, Isroildan panoh so‘rab kelgan qulni yana qaytarib egasiga
berib yubormanglar. 16 U sizlarning orangizda, o‘zi yoqtirgan joyda, tanlagan
shaharlaringizning birida yashayversin. Unga zulm qilmanglar.
17 Isroil ayollari orasida sajdagoh fohishalari bo‘lmasin. Isroil erkaklari orasida
sajdagoh fohishlari* bo‘lmasin. 18 Egangiz Xudo buzuq ayolu erkaklardan jirkanadi.
Ularning ish haqini Egangiz Xudoning uyiga olib kirmanglar. O‘shani atalgan nazr
sifatida keltirmanglar.
19 Isroil xalqidan bo‘lgan birodaringizga kumushni, nonni yoki har qanday boshqa
narsani qarzga berganingizda, foiz talab qilmanglar. 20 Boshqa xalqdan bo‘lgandan foiz
talab qilsangiz bo‘ladi, lekin birodaringizdan foiz talab qilmanglar. Shunda Egangiz Xudo
sizga mulk qilib beradigan yurtda har bir ishingizga baraka beradi.
21 Egangiz Xudoga nazr atagan bo‘lsangiz, uni kechiktirmasdan keltiring. Egangiz
Xudo va’dangizni bajarishni sizdan talab qiladi. Keltirmasangiz, o‘zingizga gunoh orttirib
olasiz. 22 Nazr atamasangiz gunoh bo‘lmaydi. 23 Ammo o‘z xohishingiz bilan Egangiz
Xudoga ont ichib nazr atasangiz, og‘zingizdan chiqqan va’dangizni albatta bajaring.
24 Birovning uzumzoriga kirganingizda, to‘yguningizcha uzumdan yesangiz bo‘ladi,
lekin idishingizga terib olmang. 25 Birovning dalasiga kirganingizda qo‘lingiz bilan
boshoq uzsangiz bo‘ladi, lekin ekiniga o‘roq solmang.

24–BOB

Ajralish va qaytadan turmush qurish

1 Agar biror kishi uylansa–yu, keyinchalik xotinidan birorta uyatli qiliq topib, uni
yoqtirmay qolsa, uning qo‘liga taloq xati yozib berib, uyidan chiqarib yuborishi mumkin.
2 Ayol erining uyidan ketib, boshqa erga tegsa–yu, 3 bu eri ham uni yoqtirmay qolsa,
ayolning qo‘liga taloq xati yozib berib, uyidan chiqarib yuborsa yoki ayolning keyingi eri
o‘lib qolsa, 4 birinchi eri ayolga qaytadan uylanishi mumkin emas. Chunki u ayol harom
bo‘ldi. Bunday qilmishdan Egamiz jirkanadi. Egangiz Xudo sizlarga mulk qilib
berayotgan yurtni bulg‘amang.

Har xil qonunlar

5 Yangi uylangan odam urushga bormasin, shunga o‘xshash majburiyat unga
yuklanmasin. U bir yil davomida erkin bo‘lib, xotinini uyda baxtli qilsin.
6 Hech kim tegirmonni yoki tegirmon toshini garovga olmasin. Shunday qilsa, u

hayotni garovga olganday bo‘ladi.

7 Agar birortasi Isroil xalqidan bo‘lgan birodarini o‘g‘irlab, uni qul qilib olgani yoki sotgani ma’lum bo‘lsa, bunday o‘g‘ri o‘ldirilsin. Shu tariqa orangizdan yomonlikni yo‘q qilinglar.

8 Teri kasalligidan* ehtiyot bo‘linglar. Men levi ruhoniylariga bergan amrlarimni bitta qoldirmay bajaringlar. 9 Misrdan chiqqanlaringizdan keyin, Egangiz Xudo yo‘lda Maryamni nima qilganini* esingizda tutinglar.

10 Birovga biror narsani qarzga berganingizda, garov olgani uning uyiga kirmang. 11 Tashqarida kutib turing. Siz qarz berayotgan odamning o‘zi sizga garovni ko‘chaga olib chiqib bersin. 12 Agar u kambag‘al bo‘lsa, uning kiyimini garovga olib, uxlagani yotmang. 13 Quyosh botayotganda undan olgan garovni qaytarib bering. U o‘zining kiyimini kiyib uxlasin, sizni duo qilsin. Bu bilan siz Egangiz Xudoning nazarida to‘g‘ri ish qilgan bo‘lasiz.

14 Kambag‘al, muhtoj mardikorning ish haqini ushlab qolmang. U Isroil xalqidan bo‘ladimi yoki shahringizga kelgan musofir bo‘ladimi, bunday qilmang. 15 U kambag‘aldir, tirikchiligi mana shu ish haqiga bog‘liq. Shuning uchun har kuni, quyosh botmasdan oldin unga haqini bering. Aks holda, birodaringiz Egamizga sizdan noliydi, natijada siz gunoh orttirib olasiz.

16 Otalar farzandlarining gunohi uchun o‘ldirilmasin. Farzandlar otalarining gunohi uchun o‘ldirilmasin. Har kim o‘z gunohi uchun o‘zi o‘lim jazosini olsin.

17 Musofir va yetimga nohaqlik qilmang, bevaning kiyimini garovga olmang. 18 O‘zlaringiz ham Misrda qul bo‘lganingizni, Egangiz Xudo sizlarni ozod qilib, u yerdan olib chiqqanini yodingizda tuting. Shuning uchun ham men sizlarga shunday qilinglar, deb buyuryapman.

19 Dalangiz hosilini o‘rganingizda, biron bog‘lam esingizdan chiqib qolsa, shu bog‘lamni olib kelgani qaytib bormang. O‘sha bog‘lam musofirlarga, yetim va bevalarga qolsin. Shunda Egangiz Xudo qiladigan har bir ishingizga baraka beradi. 20 Zaytun daraxtingiz mevasini qoqib olganingizdan keyin, qolgan–qutganiga tegmang. Ularni musofirlarga, yetim va bevalarga qoldiring. 21 Uzumzoringiz hosilini yiqqaningizda, toklarda qolib ketgan uzum boshlarini yig‘ib olmang. Ularni musofir, yetim va bevalarga qoldiring. 22 Misrda qul bo‘lganingizni esingizdan chiqarmang. Shuning uchun ham men sizlarga shunday qilinglar, deb buyuryapman.

25–BOB

1 Ikki kishi janjallashganda, ular hakamlar oldiga kelsin. Hakamlar da’voga qarab, ulardan birini haq, ikkinchisini nohaq deb e’lon qilsin. 2 Agar nohaq deb topilgan kishi kaltaklanishga loyiq bo‘lsa, hakam aybdorni yotqizsin. O‘z oldida aybiga ko‘ra, unga darra urdirsin. 3 Aybdorga qirq darradan ortig‘i urilmasin. Aks holda, birodaringiz ko‘zingiz oldida xo‘rlanadi.

4 G‘alla yanchayotgan* ho‘kizning og‘zini to‘smang.

Marhum aka yoki uka oldidagi burch

5 Agar birga yashayotgan aka–ukalarning bittasi o‘lsa–yu, uning o‘g‘li bo‘lmasa, marhumning xotini begonaga turmushga chiqmasin. Marhumning akasi yoki ukasi bevani o‘ziga xotin qilib olsin. Uning oldida qaynag‘alik vazifasini bajarsin. 6 O‘sha ayol

tuqqan to‘ng‘ich o‘g‘il marhum aka yoki ukaning nomini olib yuradi. Shunda marhumning nomi Isroildan o‘chib ketmaydi. 7 Agar o‘sha odam marhum akasi yoki ukasining bevasiga uylanishni xohlamasa, beva ayol shahar darvozasiga borib, oqsoqollarga aytsin: “Qaynag‘am tug‘ishganining nomini Isroil xalqi orasida tiklashni rad qilyapti, men uchun qaynag‘alik vazifasini bajarishni istamayapti.” 8 Shunda shahar oqsoqollari o‘sha odamni chaqirib, u bilan suhbatlashsin. Agar o‘sha odam: “Men bu ayolga uylanishni xohlamayman”, deb turib olsa, 9 beva ayol qaynag‘asining yoniga borsin. Shahar oqsoqollari oldida uning chorig‘ini yechsin, so‘ng uning yuziga tupurib, aytsin: “Birodarining naslini tiklashni xohlamagan odamga shunday qilinadi.” 10 Isroil xalqi orasida u odamning xonadoni “chorig‘i yechilgan” deb nom oladi.

Boshqa qonunlar

11 Ikki kishi bir–biri bilan urishayotganda, ulardan birining xotini kelib, erini qutqarish maqsadida narigi erkakning nozik joyidan ushlasa, 12 o‘sha ayolning qo‘li kesib tashlansin. Unga rahm qilmanglar.

13 Qadoq toshlaringiz to‘g‘ri bo‘lsin, biri og‘ir, biri yengil bo‘lmasin. 14 Uyingizdagi o‘lchov kosalarning hajmi to‘g‘ri bo‘lsin, biri katta, biri kichik bo‘lmasin. 15 Toshlaringiz halol va to‘g‘ri bo‘lsin, o‘lchovlaringiz ham halol va to‘g‘ri bo‘lsin. Shunda Egangiz Xudo sizlarga beradigan yurtda umringiz uzoq bo‘ladi. 16 G‘irromlik qiladiganlarning hammasidan Egangiz Xudo jirkanadi.

Omolek xalqini o‘ldirish haqida buyruq

17 Misrdan chiqayotganingizda yo‘lda Omolek xalqi sizlarga nima qilganini* esingizdan chiqarmang. 18 Sizlar charchab, holsizlanib qolganingizda, ular Xudodan qo‘rqmay sizlarga hujum qilgan edilar. Orqangizda kelayotgan hamma holdan toyganlarni o‘ldirgan edilar. 19 Egangiz Xudo sizlarga yurtni mulk qilib berganda, dushmanlaringizni yengib, har tarafdan osoyishtalik ato qilganda, Omolek xalqini halok qilib, ularning nomini yer yuzidan o‘chiringlar. Bunday qilishni unutmanglar!

26–BOB

Hosildan beriladigan nazrlar

1 Egangiz Xudo sizlarga mulk qilib berayotgan yurtga kirib, u yerni egallab joylashganingizda, 2 hamma ekinlaringizning ilk hosilidan olib, savatga solinglar. So‘ng o‘shani Egangiz Xudo O‘zi ulug‘lanishi uchun tanlaydigan joyga olib boringlar.
3 Xizmatda bo‘lgan ruhoniyning oldiga borib, shunday deb aytinglar: “Egamiz ota–bobolarimizga qasam ichib beraman degan yurtga men kirdim. Bugun men shuni Egang Xudo oldida e’tirof qilyapman.” 4 Ruhoniy savatni qo‘lingizdan olib, Egangiz Xudoning qurbongohi oldiga qo‘ysin. 5 Sizlar Egangiz Xudoning huzurida shu gapni aytinglar: “Bobokalonimiz Yoqub ko‘chmanchi bir Oramlik edi*. Sanoqli odam bilan Misrga borib, u yerda musofir bo‘lib yashadi. Undan buyuk, kuchli, ko‘p sonli xalq kelib chiqdi.
6 Misrliklar bizni og‘ir ishlarga solib, ezib qiynadilar. 7 Shunda biz ota–bobolarimizning Xudosi — Egamizga yolvorgan edik, Egamiz iltijoimizni eshitdi. Biz chekayotgan azoblarni, qilayotgan og‘ir mehnatimizni, Misrliklar bizga qilayotgan zulmni ko‘rdi.
8 Shundan keyin Egamiz qudratiyu ajoyibotlari bilan, buyuk, vahimali alomatu mo‘jizalari bilan bizni Misrdan olib chiqdi. 9 Bizni mana shu joyga olib keldi, sut va asal

oqib yotgan shu yurtni* bizga berdi. 10 Endi, ey Egamiz, bizga bergan yerning ilk hosilini
Senga olib keldik."
Shundan keyin savatni Egangiz Xudo oldiga qo'yib, Unga ta'zim qiling.
11 Egamiz Xudo sizga va oilangizga bergan mo'l–ko'llik tufayli shodlanib, bayram
qilinglar. Levilar va orangizda yashagan musofirlar ham sizlar bilan bayram qilsin.
12 Sizlar uchinchi yilda, ushr* berish yilida, barcha hosilingizning o'ndan bir qismini
ajrating. Keyin o'sha ushrni levilarga, musofirlarga, yetim va bevalarga bering, toki ular
ham shaharlaringizda yeb to'ysin. 13 So'ngra Egangiz Xudoga ayting: "Men uyimdan
muqaddas ulushni ajratib oldim. Sening amringga ko'ra, bu ulushni levilarga,
musofirlarga, yetimlarga, bevalarga berdim. Sening amrlaringdan chiqmadim, hech
qaysi amringni unutmadim. 14 Aza tutgan paytimda muqaddas ushrdan yemadim.
Harom bo'lganimda unga tegmadim, biron qismini ham o'liklar uchun atamadim. Ey
Egam Xudo, Senga quloq soldim, menga bergan hamma amrlaringga rioya etdim. 15 Endi
samodagi muqaddas makoningdan bizga boq! Ota–bobolarimizga ichgan qasamingga
binoan, bizga, Isroil xalqingga, baraka ber. O'zing bizga bergan sut va asal oqib yotgan
yurtga baraka ber."

Egamizning O'z xalqi

16 Egangiz Xudo bugun sizlarga: "Mana shu farmonlar va qonun–qoidalarga rioya
qilinglar", deb buyuryapti. Bularni bitta qoldirmay, butun qalbingiz bilan, jonu dilingiz
bilan bajaringlar. 17 Bugun sizlar shunday deb aytdingiz: "Egamiz bizning Xudoyimiz,
Uning yo'lidan yuramiz, Uning farmonlariga, amrlariga, qonun–qoidalariga rioya
qilamiz, Unga quloq solamiz." 18 Egamiz sizlarga bergan va'dasiga ko'ra, bugun sizlarni
O'z xalqi, O'z xazinasi deb atadi. Uning barcha amrlariga rioya qilsangiz, 19 U sizlarni O'zi
yaratgan barcha xalqlardan ustun qiladi. Sizlar maqtovlarga, shuhratu hurmatga
erishasiz. Uning va'dasiga ko'ra, Egangiz Xudoning muqaddas xalqi bo'lasiz.

27–BOB

Xudoning toshda bitilgan qonunlari

1 Muso va Isroil oqsoqollari xalqqa shunday buyruq berishdi:
— Bugun men sizlarga berayotgan barcha amrlarga rioya qilinglar. 2-4 Ko'p o'tmay
sizlar Egangiz Xudo beradigan yurtga kirasizlar. Sut va asal oqib yotgan bu yurtni* ota–
bobolaringizning Xudosi sizlarga va'da qilgan. Sizlar Iordan daryosidan kechib
o'tganingizdan keyin, Ebal tog'iga* boringlar. O'sha yerga katta toshlarni
o'rnashtiringlar. Ularni suvab, bu qonunlarning nusxasini yozinglar. 5 O'sha yerda
Egangiz Xudoga atab, tosh qurbongoh quringlar. Qurbongohga temir asbob
tekkizmanglar. 6 Egangiz Xudoning bu qurbongohini yo'nilmagan toshlardan quringlar.
Qurbongoh ustida Egangiz Xudoga kuydiriladigan qurbonliklar keltiringlar. 7 Tinchlik
qurbonliklarini ham shu yerda keltirib, tanovul qilinglar. Egangiz Xudo oldida
xursandchilik qilinglar. 8 O'rnatadigan toshlarga bu qonunning hamma so'zlarini
yozishni unutmanglar. Ularni o'qish oson bo'lsin.
9 Shundan keyin Muso bilan levi ruhoniylari butun Isroil xalqiga aytdilar:
— Tinchlaning, quloq soling, ey Isroil xalqi! Bugun sizlar Egangiz Xudoning xalqi
bo'ldingiz*. 10 Egangiz Xudoga quloq solinglar. Bugun men sizlarga berayotgan Uning
amrlariga va farmonlariga rioya qilinglar.

Itoatsizlikdan keladigan la’natlar

11 O‘sha kuni Muso xalqqa quyidagi buyruqni berdi:

12 Iordandan o‘tganlaringizdan keyin, xalqni duo qilish uchun quyidagi qabilalar
Garizim tog‘ida tursinlar: Shimo‘n, Levi, Yahudo, Issaxor, Yusuf, Benyamin. 13 La’natlar
o‘qish uchun esa quyidagi qabilalar Ebal tog‘ida* tursin: Ruben, Gad, Osher, Zabulun,
Dan, Naftali. 14 Levilar jamiki Isroil xalqiga baland ovoz bilan shunday desin:

15 “O‘yma yoki quyma but yasagan, uni yashirincha o‘rnatgan har qanday
odam la’nati bo‘lsin. Hunarmandlar qilgan bu butlardan Egamiz jirkanadi.” Butun
xalq: “Omin”, deb aytsin.
16 “Otasini yoki onasini hurmat qilmagan la’nati bo‘lsin.” Butun xalq: “Omin”,
deb aytsin.
17 “O‘z qo‘shnisining chegarasini surgan la’nati bo‘lsin.” Butun xalq: “Omin”,
deb aytsin.
18 “Ko‘r odamni yo‘ldan adashtirgan la’nati bo‘lsin.” Butun xalq: “Omin”, deb
aytsin.
19 “Musofir, yetim va bevalarga nohaqlik qilgan la’nati bo‘lsin.” Butun xalq:
“Omin”, deb aytsin.
20 “Otasini sharmanda qilib, uning xotini bilan yotgan la’nati bo‘lsin.” Butun
xalq: “Omin”, deb aytsin.
21 “Birorta hayvon bilan jinsiy aloqa qilgan la’nati bo‘lsin.” Butun xalq: “Omin”,
deb aytsin.
22 “Otasining yoki onasining qizi bilan yotgan, o‘z opasi yoki singlisi bilan
yotgan la’nati bo‘lsin.” Butun xalq: “Omin”, deb aytsin.
23 “Qaynanasi bilan yotgan la’nati bo‘lsin.” Butun xalq: “Omin”, deb aytsin.
24 “Odamni yashirincha o‘ldirgan la’nati bo‘lsin.” Butun xalq: “Omin”, deb
aytsin.
25 “Begunohni o‘ldirmoq uchun pora olgan la’nati bo‘lsin.” Butun xalq: “Omin”,
deb aytsin.
26 “Mana shu qonunga rioya qilmagan va uni bajarmagan la’nati bo‘lsin.”
Butun xalq: “Omin”, deb aytsin.

28–BOB

Itoatgo‘ylikdan keladigan barakalar

1 Agar Egangiz Xudoga itoat etib, men bugun aytayotgan Uning barcha amrlarini
bitta qoldirmay bajarsangiz, U sizlarni yer yuzidagi hamma xalqlardan ustun qiladi.
2 Egangiz Xudoga itoat etsangiz, U sizlarga baraka beradi, baraka sizdan arimaydi.

3 Egangiz sizga shaharda ham, dalada ham baraka beradi.
4 Uvali–juvali bo‘lasizlar, yeringiz hosildor, mol–qo‘yingiz barakali bo‘ladi,
sigirlaringiz bolalaydi, qo‘ylaringiz qo‘zilaydi.
5 Suprangiz va bug‘doy solingan savatlaringiz barakali bo‘ladi.
6 Uyda bo‘lganingizda ham, yo‘lga chiqqaningizda ham Egamiz sizga baraka
beradi.

7 Sizlarga hujum qilgan dushmanlaringizni Egamiz mag‘lub qiladi. Ular sizlarga bir
tomondan hujum qilib keladi, ammo yetti tomonga tumtaraqay qochadi.
8 Qilgan har bir ishingizni Egangiz Xudo serbaraka qiladi, omborlaringizni to‘ldiradi.
U sizlarga berayotgan yurtda baraka beradi.
9 Egangiz Xudoning amrlariga itoat etsangiz, Uning yo‘lidan yursangiz, Egamiz
sizlarga qasam ichib va’da berganiday, sizlarni O‘zining muqaddas xalqi qiladi.
10 Egamizga tegishli ekaningizni ko‘rib, yer yuzidagi barcha xalqlar sizlardan
qo‘rqadigan bo‘ladi. 11 Egamiz ota–bobolaringizga qasam ichib, sizlarga beraman, deb
va’da qilgan yurtda farovonlik ato qiladi. Uvali–juvali bo‘lasizlar, molingiz ko‘payadi,
dalangizning hosili barakali bo‘ladi. 12 Egamiz O‘zining osmondagi boy xazinasini ochib,
vaqtida yeringizga yomg‘ir yog‘diradi, qiladigan har bir ishingizga baraka beradi. Ko‘p
xalqlarga qarz berasiz–u, o‘zingiz qarz olmaysiz. 13 Bugun Egangiz Xudoning men
sizlarga aytayotgan amrlarini bitta qoldirmay bajarsangiz, Egamiz sizlarni dum emas,
bosh qiladi. Sizlar pastda emas, balandda bo‘lasiz. 14 Bugun men sizlarga aytayotgan
amrlardan o‘ngga yoki chapga chiqmang, boshqa xudolarga ergashmang, ularga xizmat
qilmang.

Itoatsizlikning oqibati

15 Agar Egangiz Xudoga quloq solmasangiz, bugun men sizlarga aytayotgan
Egamizning hamma amri va farmonlariga rioya qilmasangiz, quyidagi la’natlar
boshingizga keladi:

16 Shaharda ham, dalada ham la’nati bo‘lasiz.
17 Suprangiz va bug‘doy solingan savatlaringiz la’natlanadi.
18 Farzandga zor bo‘lasiz, yeringiz hosil bermaydi, mol–qo‘yingiz
ko‘paymaydi.
19 Uyda bo‘lganingizda ham, yo‘lga chiqqaningizda ham la’nati bo‘lasiz.

20 Egamizni tark etib, qabihliklar qilganingiz uchun qilgan har bir ishingizda U
sizlarni la’natga, balo–qazoga duchor qiladi. Ishingiz o‘ngidan kelmaydi. Oxiri, Egamiz
ustingizga kulfat yog‘dirib, bir lahzada yo‘q qiladi.
21 Mulk qilib oladigan yurtingizga Egamiz o‘lat yuborib, sizlarni yo‘q qiladi. 22 U
sizlarni isitma va yallig‘lanish bilan kechadigan tuzalmas kasallikka duchor qiladi.
Jazirama issiq va qurg‘oqchilik yuborib, hosilingizni qovjiratadi, mog‘orlatadi.
O‘lguningizcha bu kulfatlar orqangizdan quvadi. 23 Tepangizdagi osmon bronza kabi
qattiq, ostingizdagi yer temir kabi zarang bo‘ladi. 24 Yo‘q bo‘lib ketguningizcha, Egamiz
ustingizga yomg‘ir o‘rniga chang–to‘zon yog‘diradi.
25 Egamiz sizlarni dushmanlaringiz oldida tiz cho‘ktiradi. Ularga bir tomondan
hujum qilasizlar, ammo yetti tomonga tumtaraqay qochasizlar. Yer yuzidagi barcha
shohliklar ahvolingizni ko‘rib, dahshatga tushadi. 26 Murdalaringiz osmondagi
qushlarga, yerdagi yirtqich hayvonlarga yem bo‘ladi, ularni haydaydigan kimsa
bo‘lmaydi. 27 Egamiz sizlarni Misrliklarga toshtirgan chipqonga, yiring bog‘laydigan
yaralarga, qo‘tir va qichimalarga mubtalo qiladi. Bu xastaliklarga davo topolmaysiz.
28 Egamiz sizlarni aqldan ozdirib, ko‘r va ovsar qilib qo‘yadi. 29 Ko‘r odam qorong‘ida
paypaslanib yurganday, sizlar kuppa–kunduzi paypaslanib yurasizlar. Ishlaringiz

yurishmaydi, xor bo‘lasizlar, sizlarni talon–taroj qiladilar, hech kim sizlarni qutqarmaydi.

30 Bir qiz bilan unashtirilasiz, ammo u bilan boshqasi yotadi. Uy qurasiz–u, uyingizda yashamaysiz, uzumzor ekasiz–u, mevasidan yemaysiz. 31 Molingizni ko‘z oldingizda so‘yishadi, lekin go‘shtini yemaysiz. Eshagingizni ko‘z oldingizdan o‘g‘irlab ketishadi, qaytib berishmaydi. Qo‘ylaringiz dushmanlaringizga beriladi. Sizlarga hech kim yordam bermaydi. 32 O‘g‘illaringiz, qizlaringiz ko‘z oldingizda boshqa xalqlarga beriladi. Ular tomon talpinasiz–u, biror narsa qilishga ojiz bo‘lasiz. 33 Yeringiz hosilidan, mehnatingiz samarasidan begona xalqlar bahramand bo‘ladi. Sizni esa har kuni ezishadi, xor qilishadi. 34 Ko‘zlaringiz bilan ko‘rgan voqealardan jinni bo‘lib qolasiz. 35 Egamiz oyoqlaringizga tuzalmas yaralar toshtiradi. Butun badaningizga boshdan–oyoq chipqon chiqadi.

36 Egamiz sizlarni va ustingizdan qo‘ygan shohni o‘zlaringiz ham, ota–bobolaringiz ham bilmagan xalq oldiga haydab boradi. U yerda yog‘och va toshdan yasalgan boshqa xudolarga xizmat qilasiz. 37 Egamiz sizlarni o‘sha begona xalqlarga olib borganda, ular ahvolingizdan dahshatga tushadi. Sizlar ularga masxara, kulgi bo‘lasiz.

38 Dalaga ko‘p urug‘ ekasiz, lekin kam hosil olasiz. Hosilingizni chigirtkalar* yeb bitiradi. 39 Uzumzorlar barpo qilasiz, parvarishlaysiz, lekin sharobidan ichmaysiz, uzumini termaysiz. Ularga qurt tushadi. 40 Yerlaringizda zaytun daraxtlari o‘sadi, lekin ustingizga zaytun moyi surtmaysiz. Zaytun mevalari to‘kilib ketadi. 41 O‘g‘il–qizlar ko‘rasiz, lekin ular o‘zingizga buyurmaydi, ularni asir qilib olib ketishadi. 42 Hamma daraxtlaringizdagi mevalarni va yeringiz hosilini chigirtkalar yeb, nobud qiladi.

43 Orangizdagi musofirlar yanada ko‘tariladi, sizlar esa yanada pasayasiz. 44 Ular sizlarga qarz beradi, sizlar esa ularga qarz berolmaysiz. Ular bosh bo‘ladi, sizlar esa dum bo‘lasiz.

45 Egangiz Xudoga itoat etmaganingiz uchun, U sizlarga aytgan amrlarni va farmonlarni bajarmaganingiz uchun, mana shu la’natlar boshingizga keladi, orqangizdan quvib, sizlarga yetib olib halok qiladi. 46 Bu la’natlar to abad sizlar va avlodlaringiz uchun Xudo bergan jazoning isboti bo‘ladi. 47 Hamma narsa mo‘l–ko‘l bo‘lganda, sizlar Egangiz Xudoga xursandchiligu quvonch bilan xizmat qilmadingiz. 48 Shuning uchun Egamiz yuborgan dushmanlarga xizmat qilasiz, och, tashna, yalang‘och, muhtoj bo‘lib qolasiz. Dushmanlaringiz sizlarga temir bo‘yinturuq soladi, hammangizni nobud qiladi.
49 Egamiz boshingizga uzoqdan, yer yuzining u chetidan burgutday bir xalqni yuboradi. Sizlar bu xalqning tilini tushunmaysiz. 50 Bu xalq qo‘rqinchli, kattalarni hurmat qilmaydi, kichiklarga rahm–shafqat ko‘rsatmaydi. 51 Sizlarni xonavayron qilmaguncha, mollaringizni, yeringizning hosilini yeyishadi. Sizlarga na donni, na sharobni, na zaytun moyini, na podangizdagi buzoqlarni, na suruvingizdagi qo‘zilarni qoldirishadi. Shunda sizlar yo‘q bo‘lib ketasizlar. 52 Egangiz Xudo sizlarga berayotgan yurtdagi hamma shaharlarni ular qamal qilishadi. Siz suyangan baland va mustahkam devorlarni vayron qilishadi.

53 Qamal paytida dushmanlaringiz boshingizga solgan kulfat tufayli o‘z farzandlaringizni, Egangiz Xudo sizlarga bergan o‘g‘il–qizlaringizning etini yeysizlar.
54 Oralaringizdagi eng muloyim, eng diyonatli erkak ham tug‘ishgan akasidan, suyukli xotinidan, sog‘ qolgan bolalaridan etni qizg‘anadi. 55 O‘zi yeyayotgan bolalarining etidan hech kimga bermaydi, bundan boshqa chorasi ham bo‘lmaydi. Chunki dushmanning

qurshovi hamma shaharlaringizda sizni shu qadar tang ahvolga solib qo‘yadi.
56 Oralaringizdagi eng muloyim, eng nozik ayol, nozikligidan oyog‘ini yerga qo‘yishni
ham istamaydigan ayol, sevikli eridan, o‘g‘li va qizidan etni qizg‘anadi. 57 Ochlikdan u,
hatto, oyoqlari orasidan chiqqan yo‘ldoshni va o‘zi tuqqan bolalarni yashirincha yeydi.
Dushmanning qurshovi hamma shaharlaringizda sizni shu qadar tang ahvolga solib
qo‘yadi.
58 Egangiz Xudoning buyuk va haybatli nomidan qo‘rqmasangiz, shu kitobda yozilgan
qonunning hamma so‘zlarini bajarmasangiz, 59 Egamiz o‘zlaringizni va avlodlaringizni
og‘ir va doimiy kulfatlarga, yomon, tuzalmaydigan xastaliklarga giriftor qiladi. 60 Sizlarni
vahimaga tushiradigan barcha Misr xastaliklarini boshingizga soladi, ulardan hech
qachon shifo topmaysiz. 61 Sizlar yo‘q bo‘lguningizcha, Egamiz mana shu qonun kitobida
yozilmagan boshqa xastaligu ofatlarni ham boshingizga keltiraveradi. 62 Sizlar
osmondagi yulduzlar kabi ko‘p edingizlar, ammo Egangiz Xudoga quloq solmaganingiz
uchun sanoqli bo‘lib qolasizlar. 63 Egamiz sizlarga yaxshilik qilib, sizlarni
ko‘paytirgandan qanchalik mamnun bo‘lgan bo‘lsa, sizlarni halok qilib yo‘q qilgandan
ham shunchalik mamnun bo‘ladi. Mulk qilib oladigan yurtingizdan sizlarni sug‘urib,
uloqtirib tashlaydi.
64 Egamiz sizlarni dunyoning u chetidan bu chetigacha hamma xalqlar orasiga
tarqatib yuboradi. U yerda o‘zlaringiz ham, ota–bobolaringiz ham bilmagan, tosh va
yog‘ochdan yasalgan boshqa xudolarga xizmat qilasizlar. 65 Lekin bu xalqlar orasida
orom topolmaysizlar, oyoq uzatib dam olishingiz uchun joy bo‘lmaydi. Egamiz sizlarga
titroq yurak, xira ko‘z, umidsiz ruh beradi. 66 Hayotingiz qil ustida turgandek bo‘ladi,
kechasiyu kunduzi o‘limdan qo‘rqib yashaysiz. 67 Yuragingizdagi qo‘rquv va ko‘zlaringiz
ko‘rayotgan voqealar tufayli ertalab: “Qaniydi, kechqurun bo‘lsa”, kechqurun esa:
“Qaniydi, ertalab bo‘lsa”, deysizlar. 68 Egamiz sizlarga, Misrga qaytib bormaysizlar, deb
aytgan bo‘lsa–da, U sizlarni kemalarda Misrga qaytarib jo‘natib yuboradi. O‘sha yerda,
dushmanlarimizga qul va cho‘ri bo‘lib sotilsaydik, deb harakat qilasizlar, lekin sizlarni
sotib oladigan xaridorlar bo‘lmaydi.

29–BOB

Mo‘ab yurtida tuzilgan ahdning shartlari

1-2 Egamiz Isroil xalqi bilan Sinay tog‘ida* qilgan ahdidan tashqari, Musoga Mo‘abda
Isroil xalqi bilan ahd qilishni amr etgan edi. Muso butun Isroil xalqini yig‘ib, o‘sha ahd
shartlarini ularga quyidagicha tushuntirdi:

Egamiz Misrda fir’avnni, uning a’yonlarini, butun yurtini ko‘z oldingizda nimalar
qilganini ko‘rdingizlar. 3 Og‘ir sinovlarning, dahshatli alomatu mo‘jizalarning guvohi
bo‘ldingizlar. 4 Lekin shu paytgacha Egamiz sizlarga anglaydigan ong, ko‘radigan ko‘z,
eshitadigan quloq bermadi. 5 U sizlarni qirq yil sahroda olib yurdi. Shu davrda
kiyimingiz eskirmadi, oyog‘ingizdagi chorig‘ingiz to‘zimadi. 6 Non yemadingiz, sharob,
o‘tkir ichimlik ichmadingiz. Bularning hammasini U Egangiz Xudo ekanligini bilishingiz
uchun qildi. 7 Mana shu yerga kelganimizda Xashbon shohi Sixo‘n bilan Bashan shohi O‘g
bizga hujum qilishdi. Biz jang qilib ularni yengdik. 8 Ularning yerini tortib olib, Ruben va
Gad qabilasiga hamda Manashe qabilasining yarmiga* mulk qilib berdik. 9 Shunday

ekan, qiladigan ishlaringiz o‘ngidan kelishi uchun mana shu ahd shartlarini bitta qoldirmay bajaringlar.

10-11 Bugun hammangiz — qabila boshliqlari, oqsoqollar, nazoratchilar, barcha Isroil erkaklari, bolalar, xotinlar, orangizdagi musofirlar, o‘tin yoruvchidan tortib, suv tortuvchilargacha Egangiz Xudo oldida turibsizlar. 12 Bugun Egangiz Xudo bilan ahd qilasizlar. Bu ahdni Egangiz Xudo O‘z qasami bilan muhrlaydi, 13 toki bugundan boshlab sizlar Uning xalqi, U esa sizning Xudoyingiz bo‘lsin. U bunday qilishini sizlarga va ota–bobolaringiz Ibrohim, Is’hoq va Yoqubga qasam ichib va’da qilgan edi. 14-15 Mana, bugun sizlar biz bilan birga Egamiz Xudoning huzurida turibsizlar. Bu ahd va qasamyodni Xudo nafaqat biz bilan, balki hali dunyoga kelmagan avlodlarimiz bilan qilyapti.

16 Misrda qanday turmush kechirganimizni, boshqa xalqlarning hududidan qanday qilib o‘tib kelganimizni sizlar bilasizlar. 17 Ularning toshdan, yog‘ochdan, kumushdan va oltindan yasalgan jirkanch butlarini ko‘rdingizlar. 18 Ehtiyot bo‘ling, oralaringizda Egamiz Xudodan yuragi sovigan, o‘sha xalqlarning xudolariga xizmat qiladigan erkak, ayol, nasl yoki qabila bo‘lmasin. Oralaringizda zaharli, achchiq ildiz o‘smasin. 19 Bordi–yu, orangizdagi biror odam bu ahd shartlarini eshitib, ko‘nglida: “O‘zim xohlagan ishni qilsam ham, menga hech narsa qilmaydi”, deb o‘ylasa, u hammaning boshiga birday kulfat keltiradi*. 20 Egamiz bunday odamdan qattiq g‘azablanadi, uni kechirmaydi. Mana shu kitobda yozilgan ahdning la’natlari uning boshiga keladi, Egamiz uning nomini yer yuzidan o‘chiradi. 21 Egamiz uni Isroil qabilalari orasidan ajratib oladi–da, mana shu kitobda yozilgan ahdning barcha la’natlarini uning ustiga yog‘diradi. 22 Sizlardan keyingi avlod, sizlarning farzandlaringiz, uzoq yurtdan kelgan musofirlar Egamiz shu yurtga keltirgan ofatlar va xastaliklarni ko‘radi. 23 Butun yurtni oltingugurt va tuz kuydirib tashlagan bo‘ladi. U yerga hech nima ekib bo‘lmaydi, hech narsa unmaydi, hech qanday o‘t o‘smaydi. Yurtingiz Egamiz g‘azab ustida yo‘q qilgan Sado‘m, G‘amo‘ra, Adma va Zavo‘yim shaharlariga* o‘xshab qoladi. 24 Barcha xalqlar shunday deydi: “Nima uchun bu xalqning Egasi bu yurtni shunday ahvolga soldi ekan–a? Bunday g‘azab sochishning sababi nima ekan–a?” 25 Keyin ular shunday aytishadi: “Eh–ha, bu xalq ota–bobolarining Xudosi bilan qilgan ahdidan kechdi. Egasi ularni Misrdan olib chiqqanda ular bilan bu ahdni tuzgan edi. 26 Ular O‘z Egasidan yuz o‘girib, begona xudolarga xizmat qilishdi. Bunday qilishni Egasi ularga qat’iyan man etsa–da, ular hech foydasi tegmaydigan bu soxta xudolarga sajda etishdi. 27 Shu sababdan Egasi g‘azabini sochdi. Mana shu kitobda yozilgan la’natlarning hammasini bu yurtga yog‘dirdi. 28 U qattiq jahl bilan, kuchli qahr–g‘azab bilan xalqini o‘z yurtidan sug‘urib olib, boshqa yurtga uloqtirib yubordi. Ular bugungacha o‘sha yurtlardadir.”

29 Sirlar Egamiz Xudoga tegishlidir. Ammo U qonunni bizga ayon qildi, toki biz farzandlarimiz bilan bu qonun shartlariga to abad amal qilaylik.

30–BOB

Marhamat va la’nat sabablari

1 Men sizlarga aytgan mana shu barakalar yoki la’natlar boshingizga kelganda, Egangiz Xudo sizlarni tarqatib yuborgan xalqlar orasida bularni esga olinglar.
2 O‘zlaringiz va farzandlaringiz Egangiz Xudoga qaytinglar. Men bugun sizlarga amr qilayotganday, butun qalbingiz bilan, jonu dilingiz bilan Unga quloq solinglar. 3 Shunda

Egangiz Xudo sizlarni yana farovonlikka erishtiradi. Sizlarga rahm–shafqat qilib, O‘zi tarqatib yuborgan barcha xalqlar orasidan qaytarib yig‘ib keladi. 4 Yer yuzining to‘rt tarafiga tarqalib ketgan bo‘lsangiz ham, Egangiz Xudo sizlarni o‘sha yerlardan yig‘ib oladi, o‘sha yurtlardan qaytarib olib keladi. 5 Egangiz Xudo sizlarni ota–bobolaringiz egalik qilgan yurtga olib keladi. O‘sha yurtga egalik qilganlaringizda, Egamiz sizlarni baxtiyor qiladi. Sizlarni ota–bobolaringizdan ham ko‘proq qilib ko‘paytiradi. 6 Egangiz Xudo sizlarning yuragingizni, avlodlaringizning yuragini sunnat qiladi*. Shunda siz Egangiz Xudoni butun qalbingiz bilan, jonu dilingiz bilan sevasiz, hayotga ega bo‘lasiz. 7 Egangiz Xudo barcha la’natlarni sizdan nafratlangan, sizni quvgan dushmanlaringiz boshiga yog‘diradi. 8 Sizlar yana Egamizga quloq solasizlar. Men bugun sizlarga berayotgan Uning amrlariga rioya qilasizlar. 9 Qiladigan har bir ishingizni Egangiz Xudo muvaffaqiyatli qiladi. Uvali–juvali bo‘lasizlar, molingiz ko‘payadi, yeringiz hosili barakali bo‘ladi. Egangiz ota–bobolaringizga bergan farovonlikdan qanchalik mamnun bo‘lgan bo‘lsa, sizlarga beradigan farovonlikdan ham shunchalik mamnun bo‘ladi. 10 Shuning uchun Egangiz Xudoga itoat eting. Butun qalbingiz bilan, jonu dilingiz bilan mana shu kitobda yozilgan amr va farmonlarga rioya qilib, Egangizga qayting.

11 Men bugun buyurayotgan amr sizlar uchun unchalik qiyin emas, yoki sizlar yetib bora olmaydigan darajada uzoqda emas. 12 U osmonda emaski, sizlar: “Kim biz uchun osmonga chiqib, amrni olib beradi, toki biz eshitib, bajarsak?” desangizlar. 13 U dengizning narigi tomonida emaski, sizlar: “Kim biz uchun dengizning narigi tomoniga borib, u amrni olib keladi, toki biz eshitib, bajarsak?” — desangizlar. 14 Aksincha! Bu amr sizning yaqiningizdadir, og‘zingizda, yuragingizdadir, shuning uchun uni bajara olasizlar.

15 Bugun men sizlarga hayot bilan farovonlikni yoki o‘lim bilan kulfatni tanlash imkoniyatini beryapman. 16 Men bugun sizlarga: “Egangiz Xudoni seving, Uning yo‘lidan yuring, Uning amrlariga, farmonlariga, qonun–qoidalariga rioya qiling”, deb buyuryapman. Shunda sizlar yashaysizlar, ko‘payasizlar, mulk qilib oladigan yurtingizda Egangiz Xudo sizlarga baraka beradi. 17 Lekin sizlarga shuni aytib qo‘yayki, agar yuragingizni Xudodan o‘girsangiz, quloq solmasangiz, yo‘ldan ozib, boshqa xudolarga sig‘insangiz, ularga xizmat qilsangiz, 18 sizlar albatta yo‘q bo‘lasizlar. Iordanni kechib, mulk qilib oladigan yurtda ko‘p yashamaysizlar. 19 Bugun men sizlarga hayotni yoki o‘limni, barakalarni yoki la’natlarni tanlash imkoniyatini berdim. Bunga yeru osmonni guvoh qilib chaqirdim. Hayotni tanlang, shunda o‘zlaringiz ham, avlodlaringiz ham yashaysizlar. 20 Egangiz Xudoni seving, Unga quloq soling. Unga sodiq bo‘ling, chunki U sizning hayotingizdir. Egamiz ota–bobolaringiz Ibrohim, Is’hoq, Yoqubga qasam ichib beraman degan yurtda sizning umringizni uzoq qiladi.

31–BOB

Yoshua — Musoning davomchisi

1 Muso butun Isroil xalqiga yuqoridagi so‘zlarni aytib bo‘lgandan keyin, 2 shunday dedi*:

— Hozir 120 yoshdaman, men sizlarni janglarga boshlab bora olmayman. Egamiz menga: “Sen Iordanning narigi tomoniga o‘tmaysan”, deb aytgan. 3 Sizlar Egangiz Xudoning boshchiligida Iordanning narigi tomoniga o‘tasizlar. Egangiz u yerda

yashaydigan xalqlarni yo‘q qiladi. Sizlar ularning yurtiga egalik qilasizlar. Egamizning va’dasiga ko‘ra, Yoshua sizlarning yo‘lboshchingiz bo‘ladi. 4 Egamiz Amor xalqining shohlari O‘g bilan Sixo‘nni mag‘lub qilib, ularning yurtini yo‘q qilganday, bu xalqlarni ham xuddi shunday yo‘q qiladi. 5 Egamiz bu xalqlarni sizlarning qo‘lingizga topshiradi. Ularni xuddi men buyurganimday qilishingiz shart. 6 Dadil va botir bo‘linglar, ulardan qo‘rqmanglar, vahimaga tushmanglar. Egangiz Xudoning O‘zi sizlar bilan birga boradi, sizlarni tashlab ketmaydi, sizlarni tark etmaydi.

7 Muso Yoshuani chaqirib, butun Isroil xalqi oldida unga shunday dedi:

— Dadil va botir bo‘l. Egamiz, bu yurtni ota–bobolaringizga, avlodlaringizga beraman, deb qasam ichib va’da qilgan. Bu xalq bilan o‘sha yurtga sen kirasan. Sen orqali ular o‘sha yurtni mulk qilib olishadi*. 8 Egamizning O‘zi sening oldingda boradi, Uning O‘zi sen bilan birga bo‘ladi, seni tashlab ketmaydi, tark etmaydi. Qo‘rqma, vahimaga tushma.

Har yetti yilda qonun o‘qiladi

9 Muso mana shu qonunni yozib, uni Egamizning Ahd sandig‘ini olib yuradigan Levi avlodidan bo‘lgan ruhoniylarga va Isroilning hamma oqsoqollariga berdi. 10 So‘ngra Muso ularga shunday amr qildi:

— Har yettinchi yilning oxirida, qarzlaringizdan kechish yili Chayla bayramini nishonlaganingizda* mana shu qonunni o‘qinglar. 11 Egangiz Xudoning tanlagan joyiga, Uning huzuriga yig‘iladigan jamiki Isroil xalqiga bu qonunni baland ovoz bilan o‘qib beringlar. 12 Buning uchun erkagu ayolni, bola–chaqani, shahringizdagi musofirlarni, boringki, butun xalqni yig‘inglar. Ular eshitib o‘rganishsin, Egangiz Xudodan qo‘rqishsin. Mana shu qonunning barcha so‘zlarini bitta qoldirmay bajarishsin. 13 Sizlar Iordanni kechib, mulk qilib oladigan yurtda yashar ekansiz, umringiz davomida shunday qilinglar. Toki qonunni bilmaydigan bolalaringiz qonunni eshitib, Egangiz Xudodan qo‘rqishni o‘rganishsin.

Musoga berilgan oxirgi yo‘l–yo‘riqlar

14 Egamiz Musoga dedi:

— O‘liming yaqinlashib qoldi, Yoshuani chaqir, ikkovingiz Uchrashuv chodiriga kelinglar. Men unga ko‘rsatmalarimni beraman.

Muso bilan Yoshua Uchrashuv chodiriga borib turishdi. 15 Keyin Egamiz chodirning kirish joyida, ustun shaklidagi bulut ichida ko‘rindi. 16 Egamiz Musoga aytdi: “Sening vaqti–soating yaqinlashib qoldi. Bu xalq esa boradigan yurtda Menga bevafolik qiladi, o‘sha yurtning begona xudolariga sajda qiladi. Ular Meni tark etadilar, ular bilan qilgan ahdimni buzadilar. 17 Shunda ularga g‘azabimni sochaman, ularni tark etib, yuzimni o‘giraman. Ular oson olinadigan o‘ljaday bo‘lib qolishadi, ko‘p kulfat va ofatlar boshlariga kelgan kuni: «Xudoyimiz oramizda bo‘lmagani uchun shu kulfatlar boshimizga tushmadimikin?!» deyishadi. 18 Ular boshqa xudolarga ergashib, qilgan qabihliklari uchun, Men albatta ulardan yuzimni o‘giraman.

19 Endi quyidagi qo‘shiq so‘zlarini yozib ol. Uni butun Isroil xalqiga o‘rgat. Bu qo‘shiq doimo ularning og‘zida bo‘lsin, Isroil xalqiga qarshi Mening guvohim bo‘lsin. 20 Men ularni, ota–bobolariga qasam ichib va’da berganimday, sut va asal oqib yotgan yurtga* olib kiraman. Ular yeb to‘yib semiradilar, keyin boshqa xudolarga yuz buradilar, o‘sha xudolarga xizmat qiladilar. Mendan yuz o‘girib, ahdimni buzadilar. 21 Boshlariga ko‘p

kulfat va ofatlar kelganda, bu qo‘shiq ularga qarshi guvoh bo‘ladi. Chunki ularning avlodlari bu qo‘shiqni og‘zilaridan tushirmaydi. Men qasam ichib, va’da bergan yurtga ularni olib kirmasimdan oldin, hozirdanoq niyatlarini bilib turibman.”

22 Muso o‘sha kuni qo‘shiqni yozib, Isroil xalqiga o‘rgatdi*.

23 Egamiz Nun o‘g‘li Yoshuaga shunday amr qildi:

— Dadil va botir bo‘l. Sen Isroil xalqini Men ularga va’da qilgan yurtga olib kirasan. Men sen bilan birga bo‘laman.

24 Muso qonunlarning hamma so‘zlarini oxirigacha yozib bo‘lgach, 25 Egamizning Ahd sandig‘ini olib yuradigan levilarga shunday buyruq berdi:

26 — Bu qonunlarni Egangiz Xudoning Ahd sandig‘i yoniga qo‘yinglar, o‘sha yerda sizlarga qarshi guvoh bo‘lib tursin. 27 Men sizlarning itoatsizligingizni, o‘jarligingizni yaxshi bilaman. Borligimda Egamizga bo‘ysunmaysizlar–u, men o‘lganimdan keyin battar bo‘lasizlar! 28 Qani, barcha qabila oqsoqollaringizni va nazoratchilaringizni oldimga yig‘ib kelinglar. Men ularga shu so‘zlarni aytayin. Yer va osmon ularga qarshi guvoh bo‘lsin. 29 O‘limimdan keyin sizlar buzilib ketishingizni, men ko‘rsatgan yo‘ldan chiqib ketishingizni bilaman. Boshingizga kulfatlar tushadi, chunki Egamizning oldida qabihliklar qilasizlar. Qilgan ishlaringiz bilan Uni g‘azablantirasizlar.

Musoning qo‘shig‘i

30 Muso jamiki Isroil jamoasi oldida quyidagi qo‘shiqni boshdan oxirgacha aytdi:

32–BOB

1 Ey samo, quloq sol, men gapiraman.
Ey zamin, og‘zimdan chiqqan so‘zlarni eshit.
2 Ta’limotim yomg‘ir kabi yog‘sin,
So‘zlarim shudring kabi tushsin,
Maysalarni siypalaydigan yomg‘ir tomchilariday,
O‘tlar ustiga yog‘adigan mo‘l yomg‘irday bo‘lsin.
3 Egamizning nomini ulug‘layman!
Xudoyimizning buyukligiga hamdlar o‘qing!
4 U suyangan Qoyam, Uning ishlari komil,
Hamma yo‘llari adolatlidir.
Xudo sadoqatlidir, Unda yolg‘on yo‘q,
U haq va odildir.

5 Ammo sizlar Unga sodiq qolmadingiz!
Ey buzuq va egri nasl,
Endi sizlar Uning farzandlari deb atalmaysiz,
Bu sizlarning isnodingizdir.
6 Egamizga shunday qaytarasizmi,
Ey ahmoq, nodon xalq?!
U sizlarni yaratgan Otangiz–ku!
Sizga shakl bergan Yaratuvchingiz–ku!
7 Qadimgi kunlarni eslang,
Uzoq o‘tmishni o‘ylang.

Otangizdan so‘rang, u sizlarga aytib beradi,
Oqsoqollardan so‘rang, sizlarga gapirib berishadi.
8 Xudoyi Taolo xalqlarga yerni bo‘lib berganda,
Odamzodni yer yuziga tarqatganda,
Xalqlarning chegaralarini,
Ilohiy zotlar* soniga ko‘ra, belgilagandi.
9 Yoqub naslini esa Egamiz O‘ziga ulush qilib oldi,
Isroilni O‘z nasibasi qildi.

10 Egamiz Isroilni sahrodan,
Uvullaydigan dashtdan topib oldi.
Uni O‘z bag‘riga oldi,
Unga g‘amxo‘rlik qilib,
Ko‘z qorachig‘iday saqladi.
11 Go‘yo burgut inidagilarni uyg‘otib,
O‘z polaponlari uzra aylanganday,
Qanotlarini yoyib, polaponlarini ko‘targanday,
Qanotlari ustida ularni olib yurganday,
12 Egamizning yolg‘iz O‘zi Isroilni olib yurdi,
Yonida boshqa xudo yo‘q edi.
13 Yerning cho‘qqilariga Isroilni hukmdor qildi,
Dalaning hosili bilan uni to‘ydirdi.
Toshdan chiqqan asal bilan,
Toshloq yerda o‘sgan zaytunlarning moyi bilan boqdi.
14 Sigir qatig‘iyu echki suti bilan,
Qo‘zichoq va qo‘y dumbasi bilan,
Bashan qo‘chqoriyu buzoqlari go‘shti,
A’lo bug‘doy bilan boqdi.
Uzumdan qilingan a’lo sharobdan ichirdi.
15 Azizim Isroil* semirib, o‘jar bo‘ldi.
U semirib, shishib ketdi, oxiri bo‘kib qoldi.
O‘zini yaratgan Xudodan yuz o‘girib,
O‘z najot Qoyasini xor qildi.
16 Boshqa xudolarga sajda qilib, Uning rashkini keltirdi.
Jirkanchli butlar bilan Uning g‘azabini qo‘zg‘atdi.
17 Xudoga emas, jinlarga qurbonlik keltirdi.
Bu xudolarni o‘zlari bilmas edi,
Bu xudolar yaqinda paydo bo‘lgan,
Ota–bobolari ulardan qo‘rqmagan edi.
18 Evoh, ey Isroil, seni tuqqan Xudoni eslamading,
Seni dunyoga keltirgan Qoyani unutding.

19 Egamiz bularni ko‘rib, ularni rad etdi,
O‘z o‘g‘il–qizlari Uning g‘azabini keltirgandi.
20 U shunday dedi: “Bu xalqdan yuzimni o‘giraman,

Ularning ahvoli nima bo‘lishini ko‘raman.
Axir, ular egri nasl, sadoqatsiz farzandlardir.
21 Ular Xudo bo‘lmagan butlar bilan rashkimni keltirdilar,
Betayin xudolari bilan g‘azabimni qo‘zg‘atdilar.
Men ham xalq bo‘lmaganlar bilan ularning rashkini keltiraman,
Aqlsiz bir xalq bilan g‘azabini qo‘zg‘ataman.
22 Mening g‘azabimdan olov chiqadi,
O‘liklar diyorining* eng chuqur joyigacha yondiradi,
Yerni, hosilini kuydiradi,
Tog‘ poydevorini kul qiladi.
23 Ularga kulfat ketidan kulfat keltiraman,
O‘qlarimni bitta qo‘ymay ularga otaman:
24 Ochlik ularning sillasini quritadi,
Isitma yondirib kuydiradi,
Ofat jonlarini oladi.
Yovvoyi hayvonlar ularni tilka–pora qiladi,
Yerda sudraladigan ilonlar zahrini sochadi.
25 Ko‘chalarda yigitu qizlarni qilich halok qiladi,
Uylarda esa chaqalog‘u oq sochli keksalarni vahima o‘ldiradi.
26 Ha, Men ularni sochib tashlagan bo‘lardim,
Odamlar orasidan ularning xotirasini o‘chirib yuborgan bo‘lardim,
27 Ammo dushmanning mazaxidan hayiqdim,
G‘animlar noto‘g‘ri tushunmasin, dedim.
«Isroilni Egasi emas, biz mag‘lub qildik», deb
O‘ylamasin dedim.”

28 Isroil aqlini yo‘qotgan, idroksiz xalqdir.
29 Agar ularda aql bo‘lsa edi, tushunardi,
Oqibati nima bo‘lishini bilardi.
30 Ana, Egasi Isroilni tark etdi,
Suyangan Qoyasi ularni dushmanga berib qo‘ydi.
Aks holda, bir kishi Isroilning mingtasini ta’qib qila olarmidi?!
Ikki kishi Isroilning o‘n mingtasini hayday olarmidi?!
31 Hatto dushmanlari tan oladi,
Isroil xalqining Xudosi
Qudratli Qoya ekanligini.

32 Isroilning dushmanlari uzum tokiga o‘xshar,
Sado‘m va G‘amo‘ra* dalalarida o‘sar,
Uzumzorlarining mevasi zaharli,
Uzumlari og‘u singari achchiqdir.
33 Ularning sharobi ajdarho zahri,
Ilonlarning qo‘rqinchli og‘usidir.
34 Egamiz shunday deydi:
“Men Isroil dushmanlarini

Nimalar qilishni dilimda tutaman,
O‘shalarni xazinamda saqlayman.
35 Ularning oyoqlari chalishganda
Men O‘zim qasos va o‘ch olaman.
Ularning halokat kuni yaqindir,
Ularning qismati hal bo‘ladi.”

36 Egamizning xalqi kuchdan qolganda,
Erkinu erksizlar nobud bo‘lganda,
Egamiz O‘z xalqini oqlaydi,
O‘z qullariga rahm–shafqat qiladi.
37 Shunda Egamiz O‘z xalqidan so‘raydi:
“Ishongan xudolaringiz qani?!
Siz panoh olgan qoyangiz qani?!
38 Sizlar o‘shalarga qurbonlik yog‘idan yedirdingiz,
Nazr sharobidan ichirdingiz.
Endi ular kelib, sizlarga yordam bersin!
O‘shalar sizga qalqon bo‘lib ko‘rsin!

39 Bilib qo‘ying, Men yagonaman!
Mendan boshqa Xudo yo‘qdir.
O‘ldiradigan Menman,
Hayot beradigan ham Menman,
Jarohat yetkazadigan Menman,
Shifo beradigan ham Menman.
Mening qo‘limdan hech kim qutula olmaydi.
40 Men barhayot Xudo bo‘lganim haqi,
Qo‘limni osmonga ko‘tarib, ont ichib aytamanki,
41 Men yaltiroq qilichimni charxlayman,
Adolat o‘rnata boshlayman.
Dushmanlarimdan qasos olaman,
Mendan nafratlanganlarga qaytaraman.
42 Halok bo‘lganlar va asirlarning qoni bilan
O‘qlarimni mast qilaman,
Yov lashkarboshilarining kallalari bilan
Qilichimni etga to‘ydiraman.”

43 Ey ellar, Uning xalqi bilan birga shodlaning,
U qullarining o‘limi uchun o‘ch oladi.
Dushmanlaridan qasos olib,
Yurti va xalqini gunohdan poklaydi.

44 Muso Nun o‘g‘li Yoshua* bilan birga bu qo‘shiqning barcha so‘zlarini ovoz chiqarib, xalqqa aytib berdi.

Musoning oxirgi ko‘rsatmalari

45 Muso mana shu so‘zlarning hammasini butun Isroil xalqiga aytib bergandan keyin,
46 ularga shunday dedi:

— Bugun men sizlarni ogohlantirib, aytgan so‘zlarning hammasini yuragingizda saqlang. Bolalaringizga ham buyuring, mana shu qonunning so‘zlarini bitta qoldirmay bajarishsin. 47 Bu shunchaki quruq so‘zlar emas, balki sizlarning hayotingizdir. Mana shu so‘zlar tufayli sizlar mulk qilib oladigan Iordanning narigi tomonidagi yurtda uzoq yashaysizlar.

48 Egamiz o‘sha kuni Musoga shunday dedi:

49 — Aborim tizmasidagi Navo tog‘iga chiq. Bu tog‘ Yerixo shahri ro‘parasidagi Mo‘ab yurtida joylashgan. U yerdan Men Isroil xalqiga mulk qilib berayotgan Kan’on yurtiga qara. 50 Akang Horun Xo‘r tog‘ida olamdan o‘tganday, sen ham o‘zing chiqadigan tog‘da olamdan o‘tasan. 51 Ikkovingiz Isroil xalqining oldida Menga sadoqatsizlik qilgan edingiz. Sizlar Zin cho‘lida, Mariva suvlari bo‘yidagi Kadesh yonida Isroil xalqiga muqaddasligimni namoyon qilmagan edingiz*. 52 Shuning uchun sen o‘sha yurtni uzoqdan ko‘rasan. Men Isroil xalqiga berayotgan o‘sha yerga sen kirmaysan.

33–BOB

Muso Isroil qabilalarini duo qiladi

1 Xudoning odami Muso o‘limidan oldin Isroil xalqini quyidagi so‘zlar bilan duo qildi:

2 “Egamiz Sinay tog‘idan O‘z xalqiga keldi,
Seir yurti uzra quyoshday porladi,
Poron* qirlaridan nur sochdi.
O‘n minglarcha farishta U bilan keldi*,
O‘ng qo‘lida otashin olov* bor edi.
3 Darhaqiqat, Egamiz O‘z xalqini* sevadi,
Unga bag‘ishlangan odamlarni himoya qiladi.
Ular Egamizga ta’zim qiladilar,
Undan ko‘rsatmalar oladilar.
4 Muso Isroil xalqiga bergan ushbu qonun
Yoqub naslining bebaho mulkidir.
5 Isroil qabilalari yig‘ilganda,
Xalq yo‘lboshchilari to‘planganda,
Egamiz aziz Isroilga* shoh bo‘ldi.”

6 Muso Ruben qabilasi haqida shunday dedi:

“Ruben qabilasi yashasin, o‘lmasin,
Soni kam bo‘lsa–da, omon bo‘lsin*.”

7 Yahudo qabilasi haqida shunday dedi:

“Ey Egam, Yahudoning ovozini eshitgin,
Uni boshqa qabilalar bilan birlashtirgin.

U o‘z qo‘llari bilan o‘zini himoya qilmoqda,
Dushmanlariga qarshi unga madad bergin.”

8 Levi qabilasi haqida shunday dedi:

“Ey Egam, Sen Urim bilan Tummimni*
Taqvodor Leviga berding.
Uni Massaxda sinab ko‘rding,
U bilan Mariva suvlari bo‘yida* bellashding.
9 U ota–onasidan, aka–ukasidan,
Bola–chaqasidan Seni ustun ko‘rdi*.
Sening amrlaringni bajardi,
Ahdingga sodiq qoldi.
10 Yoqub nasliga qoidalaringni,
Isroil xalqiga qonuningni o‘rgatadi,
Huzuringda tutatqilar tutatib,
Qurbongohingda qurbonliklar kuydiradi.
11 Ey Egam, uning davlatiga baraka bergin,
Qilgan ishlaridan mamnun bo‘lgin.
Yovlarining belini sindirgin,
Undan nafratlanganlar qaytib turolmasin.”

12 Benyamin qabilasi haqida u shunday dedi:

“Egamizning suyukligi bexatar yashaydi,
Xudoyi Taolo doim uni asraydi*,
U Xudoning quchog‘ida orom oladi.”

13 Yusuf qabilasi haqida shunday dedi:

“Egamiz uning yeriga baraka bersin.
Osmon yomg‘iri, yer osti suvi bilan barakalasin.
14 Quyoshga to‘ygan a’lo hosillar bersin,
O‘z mavsumida mo‘l mevalar yetishtirsin.
15 Qadimiy tog‘larning asil unumini,
Ko‘hna adirlarning serob barakasini bersin.
16 Yerning a’lo in’omlari Yusufga nasib etsin,
Yongan buta orasida zohir bo‘lgan Xudo*
Uni O‘z muruvvatiga muyassar qilsin,
Aka–ukalari orasidan tanlangan Yusufga bular buyursin.
17 Birinchi tug‘ilgan buqaday qudratlidir u!
Uning shoxlari yovvoyi buqaning shoxlaridaydir.
Bir shoxi Efrayimning tuman lashkaridir,
Boshqa shoxi Manashening minglab jangchilaridir.
Bu shoxlari bilan Yusuf xalqlarni quvadi,
Yer yuzining chetigacha ularni haydab boradi.”

18 Zabulun va Issaxor qabilasi haqida shunday dedi:

“Zabulun safarga chiqqanda xursand bo‘lsin,
Issaxor esa chodirlarida shodlansin.
19 Ular butun xalqni toqqa chaqiradi,
U yerda ma’qul qurbonliklar keltiradi,
Dengizning boyligi bilan,
Qumdagi xazina bilan oziqlanadi.”

20 Gad qabilasi haqida shunday dedi:

“Gadning yerini kengaytirgan Xudoni olqishlang!
Gad bir arslon kabi yashaydi,
Qurbonining qo‘lu boshini uzib tashlaydi.
21 U o‘zi uchun yerning a’losini oldi,
Yo‘lboshchining ulushi unga berildi.
Xalqning yo‘lboshchilari yig‘ilganda
Gad Egamizning odil irodasini bajardi,
Egamizning Isroil uchun chiqargan qarorini ado etdi*.”

22 Dan qabilasi haqida shunday dedi:

“Dan yosh sherga o‘xshar,
U Bashandan sakrab chiqar.”

23 Naftali qabilasi haqida shunday dedi:

“Egamizning muruvvati Naftaliga yor!
Barakasi uni to‘ldirdi bisyor!
G‘arbu janubga u egalik qilar.”

24 Osher qabilasi haqida shunday dedi:

“O‘g‘illar orasida Osher eng ko‘p baraka topdi,
Aka–ukalari uni afzal ko‘rsin,
Oyog‘i zaytun moyida bo‘lsin.
25 Tambalari temiru bronzadan bo‘lsin,
Umri qancha uzoq bo‘lsa, kuchi shuncha ko‘p bo‘lsin.”

Muso Isroil xalqiga shunday dedi:

26 “Ey azizim Isroil, Xudoyingga o‘xshagani yo‘q,
U salobat bilan bulutlarni egarlaydi,
Senga yordam bergani osmondan uchib keladi,
27 Qadimdan bor bo‘lgan Xudo sening panohingdir,
Uning abadiy qo‘llari seni tutib turadi.
U dushmanlaringni oldingdan haydaydi,

Senga: «Ularni qirib tashla!» deb aytadi.
28 Ey Isroil, xavf–xatarsiz yashaysan,
Yoqub nasli, osoyishta bo‘lasan.
Sening yering don va sharobga boydir,
Yurtingga osmondan shudring tushadi.
29 Ey Isroil, sen baxtlisan!
Kim senga o‘xshar?!
Sen Egamiz qutqargan xalqsan.
Seni asraydigan qalqoning,
Shonli qiliching Egamizdir.
Oldingda dushmanlaring titrab tiz cho‘kadi,
Sen esa ularning belini ezasan.”

34–BOB

Musoning o‘limi

1 Muso Mo‘ab tekisligidan Navo tog‘ining cho‘qqisiga chiqdi*. Navo tog‘i Yerixo shahrining sharqida joylashgan Fisgax tog‘ tizmasining* eng baland joyi edi. U yerdan Musoga Egamiz butun o‘lkani ko‘rsatdi: shimoldagi Dan shahrigacha cho‘zilgan butun Gilad o‘lkasini*, 2 hamma Naftali yerlarini, Efrayim va Manashe yerlarini, O‘rta yer dengizigacha cho‘zilgan butun Yahudo yerlarini, 3 Nagav cho‘li* va tekislikni. Bu tekislik Zo‘var shahridan* to palmalar shahri bo‘lmish Yerixogacha cho‘zilgan edi. 4 Egamiz Musoga dedi:

— Men Ibrohim, Is’hoq, Yoqubga, sening avlodingga beraman, deb qasam ichib aytgan yurt mana shudir. Mana, bu yurtni o‘z ko‘zing bilan ko‘rding, lekin u yurtga kirmaysan.

5 Egamiz aytganiday, Uning quli Muso o‘sha yerda, Mo‘ab yurtida vafot etdi. 6 Egamiz uni Mo‘abda, Bayt–Piyor shahrining yaqinidagi bir vodiyda dafn qildi. Muso dafn qilingan joyni hozirgacha hech kim bilmaydi. 7 Muso vafot etganda 120 yoshda edi. Lekin ko‘zlarining nuri hali so‘nmagan edi, g‘ayrati yo‘qolmagan edi. 8 Isroil xalqi Mo‘ab tekisligida Muso uchun o‘ttiz kun aza tutdi. Muso uchun aza kunlari tamom bo‘ldi.

9 Muso o‘limidan oldin Yoshuaga qo‘l qo‘yib, uni yo‘lboshchi qilib tayinlagan edi. Nun o‘g‘li Yoshuani Xudo donolik ruhi bilan to‘ldirdi. Isroil xalqi Yoshuaga bo‘ysundi, Egamiz Musoga buyurganlarning hammasini ular qildi.

10 Isroilda Musoga o‘xshagan payg‘ambar boshqa chiqmadi. Egamiz Muso bilan yuzma–yuz gaplashar edi. 11 Egamiz uni Misr yurtida fir’avnga, uning a’yonlari va butun xalqiga alomatu mo‘jizalar ko‘rsatish uchun yuborgan edi. 12 Muso butun Isroil xalqi oldida buyuk qudratu haybatli ishlarni namoyon qilgandi.

IZOHLAR

1:1 *Iordan daryosining sharq tomonidagi cho‘lda* — ibroniycha matnda *Iordan daryosining sharq tomonidagi cho‘lda, ya’ni Arabada*. Araba umumiy geografik nom bo‘lib, bu oyatda Iordan vodiysining bir qismiga, aynan O‘lik dengizning shimolidagi yerlarga nisbatan ishlatilgan.

1:1 *…Suf…Poron…Tofal, Lobon, Xazero‘t va Dizaxab…* — bu joylarning qayerda joylashgani aniq ma’lum emas.

1:2 *Sinay tog‘i* — ibroniycha matnda *Xorev tog‘i*, Sinay tog‘ining yana bir nomi (shu bobning 6, 19–oyatlarida ham bor).

1:2 *…Seir tog‘lari bo‘ylab…* — Edom yurtining g‘arb tomonidan o‘tgan yo‘lga ishora.

1:2 *…o‘n bir kunlik yo‘ldir* — Isroil xalqi Xudoga qarshi bosh ko‘targani uchun, Kadesh–Barnadan Kan’on yurtiga o‘n bir kunda emas, balki qirq yildan keyin kirdi (shu bobning 3-40–oyatlariga qarang).

1:3 *o‘n birinchi oy* — ibroniy kalendarining Shebat oyi nazarda tutilgan. Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan yanvarning o‘rtasidan boshlanadi.

1:7 *Iordan vodiysi* — ibroniycha matnda *Araba*. Araba umumiy geografik nom bo‘lib, bu oyatda Iordan vodiysiga nisbatan ishlatilgan.

1:7 *Nagav cho‘li* — hozirgi Isroilning janubida, O‘lik dengizning janubi–g‘arbida joylashgan yerlar.

1:24 *Eshko‘l* — ibroniychadagi ma’nosi *bir bosh uzum*.

1:28 *Onoq avlodi* — Isroil xalqidan avval Kan’onda yashagan, gavdasi ulkan, kuchli jangchilari bilan mashhur bo‘lgan xalq (2:10-11, 20-21, 9:1-2 va Sahroda 13:33-34 ga qarang)

1:33 *…kechasi ustun shaklidagi alanga ichida, kunduzi esa ustun shaklidagi bulut ichida borardi* — Chiqish 40:34-38, Sahroda 9:15-23 ga qarang.

1:37 *Sizlarni deb Egamiz mendan g‘azablanib…* — Sahroda 20:2-13, 27:12-14 ga qarang.

1:40 *Qizil dengiz* — ibroniycha matnda *Yom–Suf*, ma’nosi *Qamish dengizi*. Bu oyatdagi mana shu nom hozirgi Aqaba qo‘ltig‘iga (ya’ni Qizil dengizning shimoli–sharqidagi qo‘ltig‘iga) ishora qiladi.

1:44 *Seir* — Edom yurtiga qarashli bo‘lgan tog‘li yerlar.

2:1 *Qizil dengiz* — ibroniycha matnda *Yom–Suf*, ma’nosi *Qamish dengizi*. 1:40 izohiga qarang.

2:1 *Seir tog‘lari* — 1:44 izohiga qarang.

2:4 *Seir yurtida yashaydigan birodarlaringiz* — Edom yurtining yana bir nomi Seir edi. Isroil xalqi Yoqubdan, Edom xalqi esa Yoqubning akasi Esovdan kelib chiqqan edi.

2:8 *Elet va Ezyo‘n–Geber* — Sinay yarim orolining sharqida, Qizil dengizning shimoliy qirg‘og‘idagi bandargoh shaharlar. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi BANDARGOH so‘ziga qarang.

2:8 *Iordan vodiysi* — ibroniycha matnda *Araba*. Araba umumiy geografik nom bo‘lib, bu

oyatda Iordan vodiysiga nisbatan ishlatilgan.

2:9 *Or* — Mo‘ab yurtining asosiy shaharlaridan biri bo‘lib, bu o‘rinda Mo‘abning hamma yerlariga nisbatan ishlatilgan (Sahroda 21:28 ga qarang).

2:9 *Lut avlodi* — ya’ni Mo‘ab xalqi. Ularning ota–bobosi Mo‘ab Lutning o‘g‘illaridan biri edi (Ibtido 19:36-38 ga qarang). Lut Ibrohimning jiyani edi.

2:11 *Eyim xalqi va Onoq avlodlari…Rafa xalqi…* — Isroil xalqidan avval Kan’onda yashagan, gavdasi ulkan, kuchli jangchilari bilan mashhur bo‘lgan xalqlar (1:28, 2:20-21, 3:11, 9:1-2, Sahroda 13:33-34 ga qarang).

2:12 *Esov avlodi* — ya’ni Edom xalqi (2:4 izohiga qarang).

2:13 *Zarad soyligi* — bu soylik O‘lik dengizga janubi–sharq tomondan quyilib, Edom yurtining shimoliy chegarasini va Mo‘ab yurtining janubiy chegarasini belgilar edi.

2:19 *Lut avlodi* — ya’ni Ommon xalqi. Ularning ota–bobosi Banommi Lutning o‘g‘illaridan biri edi (Ibtido 19:36-38 ga qarang). Lut Ibrohimning jiyani edi.

2:23 *Xafto‘rdan kelgan Xafto‘r xalqi* — Krit orolidan kelib chiqqan Filist xalqining ajdodlariga ishora bo‘lishi mumkin (Eski Ahdda Krit oroli Xafto‘r deb atalgan).

2:24 *Arnon soyligi* — Mo‘ab yurtining shimoliy chegarasi va shoh Sixo‘nga tegishli yerlarning janubiy chegarasi. Arnondagi soy g‘arb tomonga oqib, O‘lik dengizga quyiladi.

2:36 *soylik* — ikki adir oralig‘idagi pastlik. Ba’zi soyliklar vodiy kabi keng bo‘lardi. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi SOYLIK so‘ziga qarang.

2:37 *Yavoq daryosi* — Ommon yurtining g‘arbiy chegarasini tashkil qilgan daryoning bosh qismiga ishora. Yavoq daryosi janubdan shimolga qarab oqardi, so‘ng g‘arb tomonga burilib, Iordan daryosiga quyilardi.

3:8 *Arnon soyligi* — 2:24 izohiga qarang.

3:8 *Xermon tog‘i* — Jalila ko‘lidan qariyb 60 kilometr shimoli–sharqda joylashgan.

3:11 *Rafa xalqi* — 2:11 izohiga qarang.

3:11 *Uning yotadigan o‘rni* — yoki *Uning tobuti*.

3:11 *temir* — yoki *tosh*.

3:11 *…uzunligi to‘qqiz tirsak, kengligi esa to‘rt tirsak…* — uzunligi taxminan 4,1 metrga, kengligi taxminan 1,8 metrga to‘g‘ri keladi.

3:11 *Uning o‘rni hozir ham…* — ya’ni shu kitob yozilgan vaqtda.

3:13 *Manashe qabilasining yarmi* — Iordan daryosining sharq tomonida o‘rnashgan qabilaning yarmi nazarda tutilgan (Yoshua 13:8, 29-31 ga qarang). Qabilaning ikkinchi yarmi Iordan daryosining g‘arb tomonidagi Kan’on yurtida o‘rnashgan edi (Yoshua 22:7 ga qarang).

3:14 *bugungacha* — shu kitob yozilgan vaqtga ishora.

3:14 *Yovir qishloqlari* — ibroniycha matnda *Xavot–Yovir*, ma’nosi *Yovir shaharlari*.

3:16 *Yavoq daryosi* — Ommon yurtining g‘arbiy chegarasini tashkil qilgan daryoning bosh qismiga ishora. Yavoq daryosi janubdan shimolga qarab oqardi, so‘ng g‘arb tomonga burilib, Iordan daryosiga quyilardi.

3:17 *Jalila ko‘li* — ibroniycha matnda *Keneret*, o‘sha vaqtda Jalila ko‘li va uning atrofidagi yerlar shu nom bilan ham atalardi.

3:17 *O‘lik dengiz* — ibroniycha matnda *Tuz dengizi*.

3:26 *…Egamiz sizlar tufayli mendan g‘azablangani uchun…* — Sahroda 20:2-13, 27:12-14 ga qarang.

3:27 *Fisgax tog‘ tizmasining cho‘qqisi* — O‘lik dengizning shimoliy qirg‘og‘idan qariyb 15 kilometr sharqda joylashgan. Fisgax deb, Mo‘ab tekisligidan to g‘arbdagi Aborim tog‘larigacha cho‘zilgan tog‘ tizmasiga nisbatan aytilgan bo‘lishi mumkin. Bu tizmaning eng baland nuqtasi Navo tog‘ining cho‘qqisi edi (34:1 ga qarang).

4:3 *Egamiz Piyor tog‘ida nimalar qilganini…* — Sahroda 25:1-9 ga qarang.

4:10 *Sinay tog‘i* — ibroniycha matnda *Xorev tog‘i*, Sinay tog‘ining yana bir nomi (shu bobning 15–oyatida ham bor).

4:21 *Egamiz sizlarning dastingizdan mendan g‘azablandi…* — Sahroda 20:2-13, 27:12-14 ga qarang.

4:24 *…U rashkchi Xudodir* — Chiqish 34:13-14 ga qarang.

4:42 *…o‘sha shaharlardan biriga qochib borib, jonini qutqarishi mumkin* — 19:1-13 ga qarang.

4:48 *Siriyon* — ibroniycha matnda bu nomning boshqa varianti *Siyon*. Uning Siriyon degan shakli 3:9 dan olingan.

4:49 *…O‘lik dengiz…Iordan vodiysi…* — ibroniycha matnda *…Araba dengizi…Araba…*. Araba umumiy geografik nom bo‘lib, bu oyatda O‘lik dengiz joylashgan cho‘lni hamda O‘lik dengizning shimolidagi Iordan vodiysini bildiradi.

5:2 *Sinay tog‘i* — ibroniycha matnda *Xorev tog‘i*, Sinay tog‘ining yana bir nomi.

5:9 *O‘sha xudolar yoki butlarga…* — ibroniycha matnda *Ularga…*, shu bobning 7, 8–oyatlarida aytib o‘tilgan xudolar va butlarga ishora.

5:10 *…ming–ming avlodlariga…* — yoki *…minginchi avlodiga…* yoxud *…minglariga…*.

5:11 *…ismini suiiste’mol qilmang* — bunga Xudoning nomi bilan biror ishni qilaman, haqiqatni aytaman, deb qasam ichgandan keyin, o‘sha va’dani buzish, ontdan qaytish yoxud Xudoning nomi bilan la’natlash yoki Xudo aytganimni qilsin, deb qilingan har xil ishlar kiradi (misol uchun, Xudoning nomi bilan fol ochish yoki sehr–jodu qilish).

6:3 *sut va asal oqib yotgan yurt* — nihoyatda hosildor yerni bildiruvchi ibora. Mo‘l–ko‘l sut — mol uchun ko‘m–ko‘k yaylovlarning ko‘pligini bildiradi. Asal — xurmodan olinadigan quyuq, shirin murabboga ishora bo‘lishi mumkin. Murabboning mo‘lligi yaxshi hosil beradigan yerni bildiradi.

6:4 *Egamiz Xudo tanho Egadir* — yoki *Egamiz Xudoyimizdir, Egamiz tanhodir* yoxud *Egamiz Xudo, Egamiz bittadir*.

6:9 *kesaki* — eshik o‘rnatilgan chorcho‘p.

6:16 *Massaxda qilganingizdek…* — Chiqish 17:1-7 va Sahroda 20:1-13 ga qarang.

7:5 *Ashera* — Kan’ondagi xalqlar sajda qilgan hosildorlik xudosi bo‘lib, ayol qiyofasida tasavvur qilingan. Uning erkak jufti Baal edi. Asheraning tasvirlari baland ustun

shaklida bo‘lib, yog‘ochdan yasalgan edi.

7:20 *...tirik qolganlarni U vahimaga solib, quvib yuboradi* — yoki *...tirik qolganlarni quvish uchun U qovoq arilarni yuboradi*.

8:3 *manna* — Xudo Isroil xalqiga qirq yil davomida sahroda yetkazib turgan maxsus yegulik. Manna, Shabbat kunidan tashqari, har kuni kechasi yerga yog‘ilardi, odamlar saharda turib, uni yig‘ib olishardi. So‘ng uni yanchib, non yopishardi yoki qaynatib ovqat tayyorlashardi (Chiqish 16:13-35, Sahroda 11:7-9 ga qarang).

8:15 *...qoyadan suv chiqardi* — Chiqish 17:1-7 va Sahroda 20:2-11 ga qarang.

9:1 *...Iordan daryosining narigi tomoniga...* — ya’ni Iordan daryosining g‘arb tomoniga.

9:2 *Onoq avlodi* — 1:28 izohiga qarang.

9:8 *Sinay tog‘i* — ibroniycha matnda *Xorev tog‘i*, Sinay tog‘ining yana bir nomi.

9:9 *Egamiz sizlar bilan qilgan ahd* — ya’ni o‘nta amr.

9:18 *oldingiday* — shu bobning 9–oyatiga qarang.

9:22 *Tavera* — Sahroda 11:1-3 ga qarang.

9:22 *Massax* — Chiqish 17:1-7 va Sahroda 20:1-13 ga qarang.

9:22 *Xivrut–Xattavo* — Sahroda 11:33-34 ga qarang.

9:23 *Kadesh–Barnadan jo‘natganda ham...sizlar Egangiz Xudoning amriga qarshilik qildingizlar* — Sahroda 13-14–boblarga qarang.

10:3 *akas yog‘ochi* — quruq joylarda o‘sadigan akas daraxtining yog‘ochi qattiq, chidamli va yengil bo‘ladi.

10:6 *Yaqon urug‘iga qarashli quduqlar* — ibroniycha matnda *Baro‘t–Baniy–Yaqon*, ma’nosi *Yaqon urug‘iga qarashli quduqlar*.

10:6 *Horun o‘sha yerda vafot etib...* — Sahroda 20:22-28 ga qarang.

10:8 *bugungacha* — shu kitob yozilgan vaqtga ishora.

10:16 *Yuraklaringizni sunnat qilinglar...* — sunnat Xudoning Ibrohim va uning avlodi bilan qilgan ahd belgisi edi (Ibtido 17:9-14 ga qarang). Isroil xalqi Xudoga bo‘lgan sadoqatini va Uning amrlariga itoat qilish istagini ko‘rsatish uchun sunnat qilinardilar. Bu oyatdagi “yuraklaringizni sunnat qilinglar” iborasi ko‘chma ma’noda ishlatilib, tuzilgan ahdning tashqi belgisi bo‘lgan jismoniy sunnat yetarli emasligini ko‘rsatadi. Mazkur iborada Xudoga chin yurakdan sodiq va itoatkor bo‘lishga urg‘u beriladi (yana 30:6 ga qarang).

10:17 *xudolarning Xudosi...egalarning Egasi* — bu ibora Xudo zaminiy va samoviy kuchlarni boshqarishini bildiradi. Egamiz Xudo xalqlar sig‘inadigan barcha xudolardan ustun (misol uchun, Chiqish 12:12, 18:9-11 ga qarang). Muqaddas Kitobda bu “xudolar” behuda butlar deb ham ataladi (Chiqish 20:3-5, Zabur 95:4-5, Ishayo 42:17, 44:6-20), ba’zi bir oyatlarda esa jinlar deb tasvirlanadi (Qonunlar 32:16-17, Zabur 105:36-38, 1 Korinfliklar 10:19-20 ga qarang).

10:22 *yetmish kishi* — Ibtido 46:8-27 oyatlarga va Ibtido 46:27 izohiga qarang.

11:4 *Qizil dengiz* — ibroniycha matnda *Yom–Suf*, ma’nosi *Qamish dengizi*. Bu oyatdagi mana shu nom ostida hozirgi Suets qo‘ltig‘i (ya’ni Qizil dengizning shimoli–g‘arbidagi

qo‘ltiq) yoki Suets qo‘ltig‘i va O‘rta yer dengizi oralig‘ida joylashgan ko‘llardan biri nazarda tutilgan. Chiqish 14:10-31 dagi hodisalarning tafsilotiga ko‘ra, bu dengiz kattaligidan Isroil xalqiga to‘siq bo‘lgan, chuqurligidan Misr lashkari cho‘kib ketgan.

11:6 *…Datan va Aburamni Egamiz nimalar qilganini…* — Sahroda 16:1-34 ga qarang.

11:9 *sut va asal oqib yotgan yurt* — 6:3 izohiga qarang.

11:10 *Misrda sabzavot urug‘ini…o‘zlaringiz sug‘orar edingizlar* — Misrdagi yer tekis bo‘lib, yomg‘ir kam yog‘ardi. Ekinlarni sug‘orish uchun suvni Nil daryosidan tashib kelish kerak edi.

11:14 *Doningizni, sharobingizni va zaytun moyingizni yig‘ib olasiz* — Kan’onda ekin–tikin ishlari kuzgi yomg‘irlardan oldin boshlanardi, hosil esa bahor yomg‘irlaridan oldin yig‘ib olinardi.

11:29 *…Garizim tog‘idan…Ebal tog‘idan…* — Yoshua 8:30-35 ga qarang.

11:30 *Iordan vodiysi* — ibroniycha matnda *Araba*. Araba umumiy geografik nom bo‘lib, bu oyatda Iordan vodiysining bir qismiga, aynan O‘lik dengizning shimolidagi yerlarga nisbatan ishlatilgan.

12:3 *Ashera* — 7:5 izohiga qarang.

12:6 *ushr* — har qanday daromadning o‘ndan bir qismi. 14:22-29, 26:12-13 ga va Levilar 27:30-33 ga qarang.

12:6 *mol–qo‘ylaringizning birinchi tug‘ilgan bolalari* — 15:19-22 ga qarang.

12:22 *Pok yoki harom odam bu go‘shtni…tanovul qilaversin* — odatda go‘sht muqaddas taom sifatida tanovul qilinardi va faqat sajda uchun poklangan odamlargina bunday go‘shtdan yeyishlari mumkin edi. Muqaddas taom tarkibiga kirmagan go‘shtni esa har qanday odam poklanmasdan turib yeyishi mumkin edi.

14:1 *…badaningizni tilmang, sochingizning oldini qirmang* — bu odatlar butparast xalqlarga xos edi (misol uchun, 3 Shohlar 18:28 ga qarang).

14:4 *hayvonlar* — ibroniycha matndagi shu bobning 4-18–oyatlarida aytib o‘tilgan ba’zi hayvonlar va qushlarning qaysi turlariga mansubligi bahsli.

14:20 *…ba’zi turdagi qanotli hasharotlarni yeyishingiz mumkin* — Levilar 11:20-23 ga qarang.

14:21 *Uloqchani o‘z onasining sutida qaynatmang* — Chiqish 23:19 izohiga qarang.

14:23 *ushr* — 12:6 ning birinchi izohiga qarang.

15:12 *…ibroniy erkak yoki ayol sizga o‘zini sotsa…* — qadimgi Isroilda odamlar qarzini to‘lash uchun ba’zan o‘zlarini qullikka sotishgan yoki oila a’zolari tomonidan qul qilib sotilganlar.

16:1 *Abib oyi* — ibroniy kalendarining birinchi oyi (Abib oyi Nison oyi deb ham ataladi). Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan martning o‘rtasidan boshlanadi.

16:3 *…yetti kun davomida xamirturushsiz non yenglar* — Fisih ziyofatida va undan keyin bir hafta davomida Isroil xalqi faqat xamirturushsiz nonlarni iste’mol qilishlari kerak edi. O‘sha hafta Xamirturushsiz non bayrami deb atalgan (shu bobning 16–oyatiga va Chiqish 12:14-20, 13:3-10 ga qarang).

16:9 *Hosil* — bahorda Xamirturushsiz non bayrami paytida yetiladigan arpa hosiliga ishora (shu bobning 3–oyati izohiga qarang).

16:10 *Hosil bayrami* — ibroniycha matnda *Haftalar bayrami*, Hosil bayramining yana bir nomi (shu bobning 16–oyatida ham bor).

16:13 *Doningizni yanchib, sharobingizni tayyorlab olganingizdan keyin…* — sentabrning oxiri yoki oktabrning boshiga to‘g‘ri keladi (Levilar 23:34 oyatga va Levilar 16:29 izohiga qarang).

16:21 *Ashera* — 7:5 izohiga qarang.

17:17 *…aks holda, Egamizdan yuragi soviydi* — shohlar ajnabiy hukmdorlar bilan sulh tuzish maqsadida ularning qizlariga uylanar edilar. Bu ajnabiy xotinlar o‘z xudolariga topinib, shohni ham o‘sha butlarga topinishga undardilar.

18:2 *“Men O‘zim sizlarning ulushingiz bo‘laman”* — Xudo Levi qabilasining muhtojliklarini qondirishini va’da qilgan edi. Ular Isroil xalqining Egamizga keltirilgan qurbonligu nazrlaridan yeyish huquqiga ega edilar (shu bobning 1-2–oyatlariga qarang). Bundan tashqari, Xudoning amriga ko‘ra, xalqdan yig‘ilgan ushr Levi qabilasiga tegishli bo‘ldi (14:28-29 ga qarang), ayrim shaharlar va shahar atrofidagi yaylovlar ham ularga berilgan edi (Yoshua 21:1-3 ga qarang).

18:10 *O‘g‘li yoki qizini olovda qurbon qiladigan…* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *O‘g‘li yoki qizini olovdan o‘tkazadigan….* Butparast xalqlarga xos bo‘lgan bu jirkanch odat Xudoning nazarida o‘taketgan qabihlik edi.

18:16 *Sinay tog‘i* — ibroniycha matnda *Xorev tog‘i*, Sinay tog‘ining yana bir nomi.

19:2-3 *yurt* — Iordan daryosining g‘arb tomonidagi Kan’on yurti nazarda tutilgan. Iordan daryosining sharq tomonidagi hududda uchta panoh shahar belgilab bo‘lingandi (4:41-43 ga qarang).

20:20 *qamal inshootlari* — qadimgi davrlarda dushmanlar devor bilan o‘ralgan shaharga hujum qilayotganlarida, ko‘pincha devor yoniga baland qurilmalar yasaganlar. Shu yo‘l bilan ular shaharni himoya qilayotgan xalqqa hujum qilish uchun devorni buzishga yoki oshib o‘tishga qulay imkoniyat yaratganlar.

22:8 *…birortasi tomingizdan yiqilib o‘lsa…* — u zamonlarda uylarning tomi tekis bo‘lib, odamlar tomga chiqib dam olishardi.

22:19 *yuz bo‘lak kumush* — ibroniycha matnda *yuz shaqal kumush*, taxminan 1 kiloga to‘g‘ri keladi.

22:24 *xotin* — unashtirilgan qiz ota–onasining uyida yashab yurgan paytda, to‘yidan oldin ham nikohdagi xotin deb hisoblanardi.

22:29 *ellik bo‘lak kumush* — ibroniycha matnda *ellik shaqal kumush*, taxminan 550 grammga to‘g‘ri keladi.

23:4 *Oram–Naxrayim* — ibroniychadagi ma’nosi *Ikki daryoning Orami* demakdir. Bu yer Furot daryosi bo‘yida joylashgan bo‘lib, hozirgi Suriya mamlakatining shimoliy qismini va hozirgi Turkiyaning janubi–sharqiy qismini qamrab olardi

23:4 *Ular…Balomni sizlarni la’natlash uchun yolladi* — Sahroda 22:1-24:25 ga qarang.

23:7 *ular sizlarning qarindoshlaringizdir* — Edomliklar Yoqubning akasi Esovdan

tarqalgan nasl edi. Yoqub Isroil xalqining bobokaloni edi.

23:17 *sajdagoh fohishalari…sajdagoh fohishlari* — o‘sha paytlarda Kan’ondagi butparast xalqlar o‘z sajdagohlarida diniy vazifalardan birini fahsh orqali bajarardilar. Butparast xalqlarning udumlariga ko‘ra, odamlar fohishalar va fohishlar bilan jinsiy aloqa qilish orqali o‘z xudolariga topinardilar, xudolaridan farovonlik ato qilishni so‘rardilar.

24:8 *Teri kasalligi* — bu ibora ibroniychada har xil teri kasalliklariga nisbatan ishlatilgan so‘zning tarjimasidir. Odatda bu ibora moxov kasalligiga ishora deb tushuniladi. Teri kasalliklaridan birortasiga yo‘liqqan kishi harom hisoblanar edi. Xasta odam kasalligini boshqalarga yuqtirmasligi va ularni harom qilmasligi uchun, boshqalardan ajratib qo‘yilar edi (Levilar 13:45-46 ga qarang).

24:9 *…Egangiz Xudo yo‘lda Maryamni nima qilganini…* — Sahroda 12:1-15 ga qarang.

25:4 *G‘alla yanchayotgan…* — donni boshoqdan ajratish jarayoni yanchish deyiladi. Qadimgi Yaqin Sharqda bu ish don boshoqlarini tayoq bilan urish, ustidan tepkilash yoki xo‘ptir yurgizish orqali bajarilgan (xo‘ptir — ostiga uchli tosh yoki temir mahkamlangan og‘ir taxta).

25:17 *Misrdan chiqayotganingizda yo‘lda Omolek xalqi sizlarga nima qilganini…* — Chiqish 17:8-14 ga qarang.

26:5 *Bobokalonimiz Yoqub ko‘chmanchi bir Oramlik edi* — Ibtido 28:1-5, 18-21 ga qarang.

26:9 *sut va asal oqib yotgan shu yurt* — 6:3 izohiga qarang.

26:12 *ushr* — 12:6 ning birinchi izohiga qarang.

27:2-4 *Sut va asal oqib yotgan bu yurt* — 6:3 izohiga qarang.

27:2-4 *Ebal tog‘i* — Quddusdan qariyb 44 kilometr shimolda, Shakam shahri yaqinida joylashgan.

27:9 *Bugun sizlar Egangiz Xudoning xalqi bo‘ldingiz* — 26:16-19 ga qarang.

27:12-13 *…Garizim tog‘i…*[13]*…Ebal tog‘i…* — Garizim tog‘i Ebal tog‘idan janubda joylashgan. Bu ikki tog‘ orasidan Shakam vodiysi o‘tgan. Yana shu bobning 2-4–oyatlariga berilgan ikkinchi izohga qarang.

28:38 *chigirtkalar* — ba’zan to‘da–to‘da bo‘lib kelib, dalalardagi hosilga katta zarar yetkazadigan hasharot.

29:1-2 *Sinay tog‘i* — ibroniycha matnda *Xorev tog‘i*, Sinay tog‘ining yana bir nomi.

29:8 *Manashe qabilasining yarmi* — 3:13 izohiga qarang.

29:19 *…u hammaning boshiga birday kulfat keltiradi* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *…u sug‘orilgan yerni ham, suvsiz yerni ham birday yo‘q qiladi*. Ibroniycha matndagi gapning ma’nosi bahsli.

29:23 *Egamiz g‘azab ustida yo‘q qilgan…shaharlari* — Ibtido 19:24-29 ga qarang.

30:6 *…yuragingizni, avlodlaringizning yuragini sunnat qiladi* — 10:16 izohiga qarang.

31:1-2 *Muso…*[2]*…shunday dedi…* — Qumron qo‘lyozmalaridan va qadimiy yunoncha tarjimadan. Ibroniycha matnda *Muso borib, butun Isroil xalqiga quyidagi so‘zlarni aytdi.* [2] *U shunday dedi…*.

31:7 *Sen orqali ular o‘sha yurtni mulk qilib olishadi* — yoki *Sen o‘sha yurtni ularga mulk qilib bo‘lib berasan*.

31:10 *…Chayla bayramini nishonlaganingizda…* — 16:13 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

31:20 *sut va asal oqib yotgan yurt* — 6:3 izohiga qarang.

31:22 *Muso…qo‘shiqni yozib, Isroil xalqiga o‘rgatdi* — shu bobning 30–oyatiga va 32:1-43 ga qarang.

32:8 *Ilohiy zotlar* — Qumron qo‘lyozmalaridan va qadimiy yunoncha tarjimadan. Ibroniycha matnda *Isroil o‘g‘illari*. Doniyor 10:13 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

32:15 *Azizim Isroil* — ibroniycha matnda *Yoshurun*, Isroilni erkalab aytilgan nom.

32:22 *O‘liklar diyori* — ibroniycha matnda *Sheo‘l*. Qadimda Isroil xalqi *Sheo‘l*ni yer ostidagi tubsiz chuqurlik, marhumlar boradigan qorong‘i joy deb tushunardi.

32:32 *Sado‘m va G‘amo‘ra* — aholisining o‘ta buzuqligi oqibatida Egamiz vayron qilgan ikkita shahar (Ibtido 18:16-19:28 ga qarang).

32:44 *Yoshua* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Xo‘sheya*.

32:51 *Ikkovingiz…Isroil xalqiga muqaddasligimni namoyon qilmagan edingiz* — Sahroda 20:1-13 ga qarang.

33:2 *Sinay…Seir…Poron* — bu joylar she’riy asarlarda Isroil xalqiga Egamiz qonunlar berganini eslatadi.

33:2 *O‘n minglarcha farishta U bilan keldi…* — yoki *U o‘n minglarcha farishta orasidan keldi…*.

33:2 *olov* — yoki *qonun*.

33:3 *O‘z xalqi* — qadimiy yunoncha tarjimadan. Ibroniycha matnda *xalqlar*.

33:5 *aziz Isroil* — ibroniycha matnda *Yoshurun*, Isroilni erkalab aytilgan nom (shu bobning 26–oyatida ham bor).

33:6 *…Soni kam bo‘lsa–da, omon bo‘lsin* — yoki *…Soni kam bo‘lmasin*.

33:8 *Urim bilan Tummim* — ayrim hollarda ruhoniylar Xudoning xohishini bilish uchun foydalanadigan ikkita muqaddas narsa. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun Chiqish 28:15 ning ikkinchi izohiga qarang. Hamma ruhoniylar Levi qabilasidan edi.

33:8 *…Massaxda…Mariva suvlari bo‘yida…* — Chiqish 17:1-7 va Sahroda 20:1-13 ga qarang.

33:9 *U ota–onasidan…Seni ustun ko‘rdi* — Chiqish 32:25-29 ga qarang.

33:12 *…bexatar yashaydi, Xudoyi Taolo doim uni asraydi…* — yoki *…U bilan bexatar yashaydi, Egamiz doim uni asraydi…*.

33:16 *Yongan buta orasida zohir bo‘lgan Xudo* — Chiqish 3:1-6 ga qarang.

33:21 *U o‘zi uchun yerning a’losini oldi…Egamizning Isroil uchun chiqargan qarorini ado etdi* — Sahroda 32:16-31, Yoshua 4:12-13 ga qarang.

34:1 *Muso…Navo tog‘ining cho‘qqisiga chiqdi* — 32:48-49 ga qarang.

34:1 *Fisgax tog‘ tizmasi* — O‘lik dengizning shimoliy qirg‘og‘idan qariyb 15 kilometr

sharqda joylashgan. Fisgax deb, Moʻab tekisligidan to gʻarbdagi Aborim togʻlarigacha choʻzilgan togʻ tizmasiga nisbatan aytilgan boʻlishi mumkin.

34:1 *Gilad oʻlkasi* — Iordan daryosining sharq tomonida joylashgan.

34:3 *Nagav choʻli* — hozirgi Isroilning janubida, Oʻlik dengizning janubi–gʻarbida joylashgan yerlar.

34:3 *Zoʻvar shahri* — Oʻlik dengizning janubi–sharq tomonida joylashgan.

YOSHUA

KITOBI

Kirish

Yoshua kitobida Isroil xalqining tarixi bayon etilgan bo‘lib, kitobdan o‘rin olgan voqealar Musoning Tavrot kitobidagi voqealarning uzviy davomidir. Isroil xalqi Xudo Ibrohimga va’da qilgan Kan’on yurtiga kirib, uni zabt eta boshlaydi. Mazkur kitobda nafaqat tarixiy dalillar, balki Xudoning O‘z xalqi bilan bo‘lgan jonli munosabati, va’dalariga sodiqligi, bevafo xalqiga ko‘rsatgan mehr–shafqati bayon qilingan.

Bu kitobning bosh qahramoni Nun o‘g‘li Yoshuadir. Musoning o‘limidan keyin Yoshua Isroil xalqining yo‘lboshchisi qilib tayinlangan edi. Yoshua ismi “Egamiz qutqaradi” degan ma’noni bildiradi. Kitobning shu nom bilan atalishi ham bejiz emas, chunki Xudoning O‘zi xalqini dushmanlaridan qutqarib, sanoqsiz janglarda ularga g‘alaba ato qiladi. G‘alaba harbiy kuch va salohiyat tufayli emas, balki Xudoga bo‘lgan ishonch va Uning so‘ziga itoatkorlik tufayli nasib bo‘lishini Isroil xalqi o‘z tajribasidan bilib oladi.

Kitobning boshida (1-12–boblar) Yoshua Isroil xalqini Kan’on yurtiga olib kirgani va yurtning aksariyat qismini zabt etgani haqida hikoya qilinadi. Kitobning bu qismida ko‘p mo‘jizalar haqida so‘z yuritiladi, masalan, Yerixo shahri uchun bo‘lgan jangda Xudoning qudrati bilan shahar devorlari o‘pirilib tushadi, Givon shahri uchun bo‘lgan jangda Xudo osmondan yirik do‘l yog‘dirib, dushman jangchilarini ezib tashlaydi, quyoshni bir joyda to‘xtatib qo‘yadi.

Kitobning davomida (13-25–boblar) Kan’on yurtining yerlari Isroil qabilalari orasida taqsimlanishi haqida so‘z boradi. Muso davrida Isroil xalqining Ruben, Gad qabilalari va Manashe qabilasining yarmi Iordan daryosining sharqidagi yerlarga o‘rnashib olgan edilar. Endi Yoshua Iordan daryosining g‘arbidagi yerlarni qolgan to‘qqizta qabila va Manashe qabilasining ikkinchi yarmiga taqsimlab beradi. Levi qabilasi Xudoga xizmat qilgani bois, ularga boshqa qabilalar qatori yer ulush qilib berilmaydi. Yurtdan ulush berish o‘rniga, Yoshua levilarga butun yurt bo‘ylab yashashlari uchun shahar va qishloqlarni ajratib beradi. Oradan ancha yillar o‘tgandan keyin, hayotining so‘nggi damlarida Yoshua xalqni Xudoga sadoqatli bo‘lishga, faqat Unga sajda qilishga chaqiradi.

1–BOB

Xudo Yoshuaga Kan’on yurtini bosib olish haqida amr beradi

1 Egamiz O‘zining quli Muso vafotidan keyin Musoning yordamchisi Yoshuaga
shunday dedi: 2 “Mening qulim Muso vafot etdi. Endi hammangiz — butun Isroil xalqi
Men sizlarga berayotgan yurtga kirish uchun Iordan daryosidan o‘tishga
tayyorlaninglar*. 3 Musoga va’da berganimday, oyog‘ingiz tekkan hamma joyni sizlarga
beraman. 4 Janubdagi sahrodan shimoldagi Lubnongacha, sharqdagi buyuk Furot
daryosidan g‘arbdagi O‘rta yer dengizigacha* bo‘lgan joylar, Xet xalqining hamma
yerlari* sizning yurtingiz bo‘ladi. 5 Ey Yoshua, bir umr hech kim senga bas kela olmaydi.

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

Muso bilan bo‘lganimday, sen bilan ham birga bo‘laman. Seni tark etmayman, hech
qachon tashlab ketmayman. 6 Dadil va botir bo‘l, Isroil xalqi bu yurtni qo‘lga kiritib,
egalik qilishiga sen bosh bo‘lasan. Chunki ularning ota–bobolariga, bu yurtni sizlarga
beraman, deb va’da qilganman. 7 Dadil va botir bo‘lishing kerak, Men qulim Muso orqali
buyurgan qonunlarning hammasini bitta qoldirmay bajar, borgan joyingda ishlaring
o‘ngidan kelishi uchun bu qonunlardan o‘ngga ham, chapga ham og‘ma. 8 Tavrot
kitobida* yozilganlar tilingdan tushmasin, ularni bitta qoldirmay bajarishing uchun
kechayu kunduz ular haqida fikr yuritgin. Shunda ishlaring yurishib, o‘ngidan keladi.
9 Amr qilaman: dadil va botir bo‘l, vahimaga tushma, qo‘rqma, qayerga borsang ham,
Men, Egang Xudo, sen bilan birga bo‘laman.”

Yoshuaning xalqqa bergan buyruqlari

10 Shundan keyin Yoshua Isroil qabilalarining nazoratchilariga shunday deb buyurdi:
11 — Qarorgoh bo‘ylab yurib, xalqqa quyidagi gaplarni aytinglar: “Oziq–
ovqatlaringizni tayyorlanglar, chunki uch kundan keyin Iordan daryosidan o‘tib, Egangiz
Xudo sizlarga berayotgan yurtni qo‘lga kirita boshlaysizlar.”
12 Ruben, Gad qabilalari va Manashe qabilasining yarmiga Yoshua shunday dedi:
13 — Egamizning quli Muso sizlarga amr qilib aytgan so‘zlarini eslang*. U sizlarga:
“Egangiz Xudo sizlarga osoyishtalik ato qilib, mana shu yerlarni berdi”, deb aytgan edi.
14 Xotinlaringiz, bolalaringiz, mol–qo‘ylaringiz Muso sizlarga bergan yerda —
Iordanning mana shu sharq tomonida qoladi. Orangizdagi barcha qurollangan jasur
jangchilar esa birodarlaringizning oldida borib, Iordan daryosidan o‘tadi.
15 Birodarlaringiz ham Egangiz Xudo berayotgan yurtni egallamaguncha, jasur
jangchilaringiz ularga yordam beradi. Egamiz sizga osoyishtalik berganday,
birodarlaringizga ham osoyishtalik bergandan keyingina Egamizning quli Muso sizlarga
bergan Iordanning sharqidagi o‘z yeringizga qaytib kelib, joylashasizlar.
16 Ular Yoshuaga shunday deb javob berishdi:
— Siz buyurgan hamma narsani qilamiz, qayerga yuborsangiz boramiz. 17 Hamma
narsada Musoga qanday itoat qilgan bo‘lsak, sizga ham shunday itoat qilamiz. Egangiz
Xudo, Muso bilan bo‘lganidek, siz bilan birga bo‘lsin! 18 Sizning aytgan so‘zlaringizga
qarshi chiqqanlarning, birorta buyrug‘ingizga bo‘ysunmaganlarning jazosi o‘limdir. Siz
faqat dadil va botir bo‘ling.

2–BOB

Yoshua Yerixoga ayg‘oqchilarni yuboradi

1 Yoshua Shitimdagi qarorgohdan* ikki kishini yashirincha ayg‘oqchi qilib yubordi.
Yuborishdan oldin ularga: “Borib, Kan’on yurtini, ayniqsa, Yerixo shahrini* yaxshilab
ko‘rib kelinglar”, dedi. Ayg‘oqchilar Yerixoga ketishdi. Borib, Rahoba ismli bir
fohishaning uyida tunab qolishdi. 2 Yerixo shohiga: “Bugun kechqurun Isroil xalqidan bir
nechtasi butun yurtimizni tekshirish uchun kelishibdi” degan xabar yetib bordi.
3 Shunda shoh Rahobaga xabar yuborib: “Yurtimizni tekshirishga kelgan kishilar sening
uyingga kiribdi. Endi ularni tashqariga olib chiq”, deb buyurdi. 4 Lekin ayol o‘sha
kishilarni yashirib qo‘ygan edi. U shohning odamlariga shunday dedi: “To‘g‘ri, o‘sha
kishilar menikiga kelgan edi, lekin ularning qayerdan kelganini bilmagandim. 5 Kech
tushib, shahar darvozasi yopilishidan oldin ular chiqib ketishdi. U kishilar qayerga

ketganini bilmayman. Agar tez orqasidan borsangiz, ularni ushlashingiz mumkin.”
6 Aslida Rahoba ularni tomga olib chiqib, quritish uchun yoyib qo‘yilgan zig‘ir
bog‘lamlari tagiga yashirib qo‘ygan edi. 7 Shohning odamlari shahardan chiqib ketishi
bilanoq, shahar darvozasi yopildi*. Ular ayg‘oqchilarni qidirib, Iordan daryosining
kechuv joyigacha borishdi.
8 Ayg‘oqchilar uxlashga yotishdan oldin Rahoba tomga chiqib, 9 ularga shunday dedi:
“Egangiz bizning yurtimizni sizlarga berganligini bilaman. Butun xalqimiz bilan
sizlardan qo‘rqib qolganmiz. Shu yerda yashaydiganlarning hammasi sizlar haqingizda
eshitib vahimaga tushgan. 10 Biz eshitdik, sizlar Misrdan chiqqaningizdan keyin, Egangiz
oldingizda Qizil dengiz* suvlarini quritibdi. Iordanning sharq tomonidagi Amor
xalqining shohlari O‘g va Sixo‘nni nima qilganingizni, ularning odamlarini butunlay qirib
tashlaganingizni ham eshitdik. 11 Bu voqealar haqida eshitishimiz bilanoq yuraklarimiz
orqaga tortib ketdi, sizlardan qo‘rqqanimiz uchun jasoratimizdan asar ham qolmadi.
Chunki Egangiz Xudo yeru samodagi Xudodir. 12 Men sizlarga marhamat ko‘rsatdim.
Endi shuning uchun Egangiz haqi qasam ichib, sening oilangga ham mehribonlik
qilamiz, deb kafolat bering. 13 Mana shu kafolat ota–onam, aka–ukam, opa–singillarim va
ularga qarashli bo‘lganlarni saqlab qolishingizni, bizni o‘limdan qutqarishingizni
bildirsin.” 14 Ayg‘oqchilar unga shunday deyishdi: “Agar biz haqimizda hech kimga
aytmasang, Egamiz bizga shu yerni berganda, sen va sening oilangga marhamat
ko‘rsatamiz, deb va’da beramiz. Sizlarga biror narsa bo‘lsa, Xudo jonimizni olsin.”
15 Rahobaning uyi shahar devorlariga taqalib qurilganligi uchun*, derazasi
shahardan tashqariga qarab turgan edi. Rahoba mana shu derazadan arqon tushirib,
ayg‘oqchilarning qochishiga yordam berdi. 16 Ular ketishidan oldin, Rahoba: “Sizlarni
quvayotganlar topib olmasligi uchun qirlarga boringlar. O‘sha yerda uch kun
yashiringlar. Ular qaytib kelganlaridan keyin o‘z yo‘lingizga ketaverasiz”, — degan edi.
17-18 Ayg‘oqchilar Rahobaga javoban shunday deyishgan edi: “Biz bu yerga hujum
qilganimizda mana shu qizil arqonni biz tushadigan derazangga bog‘lab, osiltirib
qo‘ygin. Oilangdagilarning hammasi — ota–onang, aka–ukang, qarindosh–urug‘laring
uyingda bo‘lishi kerak, bo‘lmasa, biz senga ichgan qasamimizdan xalos bo‘lamiz.
19 Birortasi eshigingdan tashqariga, ko‘chaga chiqsa, o‘z o‘limiga o‘zi javobgar bo‘ladi,
biz gunohkor bo‘lmaymiz. Lekin sen bilan uy ichida bo‘lganlarga birortasi qo‘l tekkizsa,
ularning o‘limiga biz javobgar bo‘lamiz. 20 Lekin mabodo biz haqimizda birovga og‘iz
ochsang, sen bizga ichtirgan qasamdan xalos bo‘lamiz.” 21 Rahoba: “Sizlar nima desangiz
shunday bo‘lsin” degan so‘zlar bilan ayg‘oqchilarni chiqarib yubordi. Ular o‘z yo‘llariga
ketishdi. Keyin Rahoba qizil arqonni derazasiga bog‘lab qo‘ydi.
22 O‘sha ayg‘oqchilar borib, qirlarda uch kun, ularni izlab yurganlar qaytguncha
turishdi. Ularni quvib ketganlar yo‘l bo‘yidagi hamma joylarni izlab ham hech kimni
topa olmadilar. 23 Ayg‘oqchilar qirdan qaytib tushishdi. Ular daryoni kechib o‘tib*,
Yoshuaning oldiga kelib, bo‘lgan voqealarning hammasini unga aytib berishdi. 24 Ular
Yoshuaga: “Haqiqatan ham Egamiz butun yurtni bizning qo‘limizga bergan. U yerda
yashovchilarning hammasi bizlarni deb vahimaga tushgan”, deyishdi.

3–BOB

Isroil xalqi Iordan daryosini kechib o‘tadi

1 Ertasiga tongda Yoshua butun Isroil xalqi bilan birga Shitim qarorgohidan chiqib,
Iordanga yetib keldi. Daryoni kechib o‘tishdan oldin ular o‘sha yerda qarorgoh qurishdi.
2 Uch kundan keyin qabila nazoratchilari qarorgoh bo‘ylab yurib, 3 xalqqa shunday
deyishdi: “Levi ruhoniylari Egangiz Xudoning Ahd sandig‘ini ko‘tarib ketayotganini
ko‘rganingizda yo‘lga chiqinglar. Uning orqasidan boringlar. 4 U sizga yo‘lni ko‘rsatib
boradi, chunki sizlar bu yo‘lni bilmaysizlar. Lekin Sandiq bilan sizlarning orangizdagi
masofa taxminan ikki ming tirsak* bo‘lishi kerak. Orangizdagi masofa mana shundan
kam bo‘lmasin.” 5 Keyin Yoshua xalqqa: “O‘zingizni poklang*, chunki ertaga Egamiz
oramizda mo‘jizalar ko‘rsatadi”, — dedi. 6 Ertasiga Yoshua ruhoniylarga shunday dedi:
“Ahd sandig‘ini olib, xalqning oldida yuringlar.” Ruhoniylar Ahd sandig‘ini ko‘tarib, xalq
oldida borishdi.

7 Egamiz Yoshuaga shunday dedi:

— Bugundan boshlab seni butun Isroil xalqi oldida ko‘kka ko‘taraman, shunda ular
Men Muso bilan bo‘lganimdek, sen bilan birga ekanimni bilishadi. 8 Ahd sandig‘ini
ko‘tarib boradigan ruhoniylarga aytasan: “Iordan daryosiga yetib borganingizdan keyin,
daryoga kirib to‘xtanglar.”

9 Keyin Yoshua Isroil xalqiga shunday dedi:

— Yaqinroq kelib, Egangiz Xudoning gaplarini eshiting. 10-11 Mana, butun olam
Rabbiysining Ahd sandig‘i oldingizda Iordan daryosidan o‘tadi*. Shunday qilib, barhayot
Xudo sizlarning orangizda ekanligini, Uning O‘zi Kan’on, Xet, Xiv, Pariz, Girgosh, Amor va
Yobus xalqlarini sizlarning oldingizdan albatta quvib yuborishini bilasizlar. 12 Endi Isroil
xalqining har bir qabilasidan bittadan, jami o‘n ikkita erkakni tanlab olinglar. 13 Butun
olam Rabbiysi — Egamizning Ahd sandig‘ini ko‘targan ruhoniylarning oyoqlari Iordan
daryosining suvlariga tegishi bilanoq oqim to‘xtab qoladi, suv bir joyda yig‘ilib turadi.

14 Xalq o‘z chodirlarini yig‘ib, Iordandan o‘tish uchun yo‘lga tushganda, Ahd
sandig‘ini ko‘targan ruhoniylar ularning oldida borar edi. 15 Hosil mavsumi* bo‘lgani
uchun Iordan suvi qirg‘oqlaridan ham toshib oqardi. Ahd sandig‘ini ko‘targan
ruhoniylar Iordanga yaqinlashdilar. Ularning oyoqlari suvga tegishi bilanoq, 16-
17 daryoning oqimi to‘xtab qoldi. Suv uzoqda joylashgan Zoraton yonidagi Adam shahri*
oldida yig‘ilib qoldi, O‘lik dengizga* quyiladigan daryo suvi esa oqib ketdi, daryo o‘zani
qurib qoldi. Jamiki Isroil xalqi quruq yerdan yurib, Iordandan o‘tib bo‘lmaguncha,
Egamizning Ahd sandig‘ini ko‘targan ruhoniylar daryoning o‘rtasida, quruq yerda
turishdi. Xalq daryodan o‘tib, Yerixo shahrining yonidagi yerlarga bordi.

4–BOB

Isroil xalqi toshlardan yodgorlik o‘rnatadi

1 Butun xalq Iordandan o‘tib bo‘lgandan keyin, Egamiz Yoshuaga shunday dedi:

2 — Xalqning orasidan o‘n ikki kishini tanlagin, har bir qabiladan bittadan bo‘lsin.
3 Ularga: “Iordan daryosining o‘rtasidan, ruhoniylarning oyog‘i turgan joydan o‘n ikkita
tosh olib chiqinglar, bugun kechqurun qarorgoh quradigan joyga olib borib qo‘yinglar”,
deb buyurgin.

4 Yoshua har bir Isroil qabilasidan tanlagan o‘n ikki kishini chaqirib, 5 ularga shunday
dedi: “Egangiz Xudoning Ahd sandig‘i oldiga, Iordanning o‘rtasiga borib, u yerdan har
biringiz Isroil qabilalarining har biri uchun bittadan tosh olinglar. Ularni yelkangizda
ko‘tarib, qarorgohga olib boringlar. 6 Bu toshlar sizlarga esdalik bo‘lib xizmat qiladi.
Vaqti kelib, farzandlaringiz sizlardan: «Bu toshlar nimani bildiradi?» deb so‘raganda,
7 ularga Egamizning Ahd sandig‘i Iordan daryosidan o‘tayotganda, daryoning suvlari
to‘xtab qolganini aytib berasizlar. Bu toshlar sizlarga umrbod yodgorlik bo‘lib qoladi.”
8 Isroil xalqidan tanlangan kishilar Yoshua ularga buyurganday qilishdi. Egamiz
Yoshuaga aytganday, ular Iordanning o‘rtasidan har bir Isroil qabilasi uchun bittadan
tosh, jami o‘n ikkita tosh olib, o‘zlari bilan o‘sha kuni qarorgoh qurilgan joyga olib borib
qo‘yishdi. 9 Shundan keyin Yoshua yana o‘n ikkita tosh olib, Iordanning o‘rtasiga bir
yodgorlik qurdi. Bu yodgorlik Ahd sandig‘ini ko‘targan ruhoniylar turgan joyga qurilgan
edi. U toshlar bugungacha* o‘sha yerdadir.
10 Egamiz Yoshuaga, xalqqa aytgin, deb amr qilganlarining hammasi sodir
bo‘lmaguncha, Sandiqni ko‘targan ruhoniylar Iordanning o‘rtasida turdilar. Yoshuaga
Muso mana shu yo‘l–yo‘riqlarni ko‘rsatgan edi. Xalq tez–tez daryodan o‘tdi. 11 Hamma
daryodan o‘tib bo‘lgandan keyin, Iordanning o‘rtasida turgan ruhoniylar Egamizning
Ahd sandig‘ini ko‘tarib, daryodan chiqdilar. Butun xalq buni ko‘rib turdi. 12 Muso
buyurganday*, Ruben, Gad qabilalari va Manashe qabilasi yarmining erkaklari ham
qurollanib, daryodan o‘tgan edilar. Ular Isroil xalqining oldingi saflarida edilar. 13 Jangga
tayyor o‘sha qirq mingga yaqin kishi Egamiz boshchiligida Yerixo yonidagi tekislikka
o‘tdi.
14 O‘sha kuni Egamiz qilgan ishlari orqali Isroil xalqining ko‘zi oldida Yoshuaning
nomini yuksaltirdi*. Ular butun umri davomida Musoni qanday hurmat qilgan bo‘lsalar,
Yoshuani ham shunday hurmat qildilar.
15-16 O‘sha kuni Egamiz Yoshuaga: “Ahd sandig‘ini* ko‘targan ruhoniylarga,
Iordandan chiqinglar, deb buyurgin”, degan edi. 17 Yoshua ruhoniylarga: “Iordandan
chiqinglar!” deb buyurganda, 18 Egamizning Ahd sandig‘ini ko‘targan ruhoniylar
Iordanning o‘rtasidan chiqib kelishgandi. Ularning oyoqlari narigi qirg‘oqning quruq
yeriga tegishi bilanoq, Iordanning suvlari yana oldingiday qirg‘oqlardan toshib oqa
boshlagandi.
19 Shunday qilib, xalq birinchi oyning* o‘ninchi kunida Iordandan o‘tdi. Ular Yerixo
shahrining sharqidagi Gilgal* degan joyda qarorgoh qurishdi. 20 Ular Iordandan olgan
o‘n ikkita toshni Yoshua Gilgalda o‘rnatib, 21 Isroil xalqiga shunday dedi:
— Vaqti kelib, farzandlaringiz sizlardan: “Bu toshlar nimani bildiradi?” deb so‘rasa,
22 sizlar shunday javob berasizlar: “Isroil xalqi mana shu yerda quruq yerdan yurib
Iordandan o‘tgandi. 23 Egamiz Xudo biz o‘tishimiz uchun Qizil dengizni* quritganday, bu
yerda ham biz o‘tib bo‘lmagunimizcha Iordanning suvlarini quritgan edi. 24 Yer yuzidagi
barcha xalqlar Egamizning qudratli ekanini bilishi hamda sizlar Xudoyingiz —
Egamizdan bir umr qo‘rqishingiz uchun shunday qilgan edi.”

5–BOB

1 Isroil xalqi Iordan daryosidan o‘tib bo‘lguncha, Egamiz ular uchun daryoning suvini
quritgan edi. Iordanning g‘arbidagi Amor shohlari va O‘rta yer dengizi yonidagi Kan’on

shohlari bu haqda eshitib, yuraklari orqaga tortib ketdi. Isroil xalqidan qo‘rqqanlari uchun ularning jasoratidan asar ham qolmadi.

Isroil xalqi Gilgalda sunnat qilinadi

2 O‘sha paytda Egamiz Yoshuaga shunday dedi: “Toshdan pichoqlar yasab*, Isroil
xalqining bu yangi avlodini sunnat qilinglar*.” 3 Yoshua toshdan pichoqlar yasatib, ularni
Givot–Xarilo‘t* degan joyda sunnat qildirdi. 4 Yoshua sunnat qilganining sababi
quyidagicha: Misrdan chiqqan, jangga yaroqli erkaklarning hammasi sahrodagi safar
davomida o‘lgan edi. 5 Misrdan chiqqanlarning hammasi sunnat qilingan bo‘lsa–da,
sahroda tug‘ilgan o‘g‘il bolalar sunnat qilinmagan edi. 6 Egamizga itoat qilmagan,
Misrdan chiqqanda jangga yaroqli bo‘lgan naslning hammasi o‘lmaguncha, Isroil xalqi
qirq yil sahroda sargardon bo‘lib yurdi. Egamiz ularga: “Men ota–bobolaringizga va’da
qilib, sizlarga beraman degan sut va asal oqib yotgan yurtni* hech qachon
ko‘rmaysizlar”, deb qasam ichgan edi. 7 Misrdan chiqqanlarning o‘rniga Egamiz ularning
farzandlarini bino qildi. O‘sha yangi avlod yo‘lda sunnat qilinmagan edi. Mana shuning
uchun Yoshua ularni sunnat qildi.

8 Hamma erkaklar sunnat qilingandan keyin, tuzalguncha qarorgohda qoldilar.
9 Egamiz Yoshuaga: “Bugun Men sizlardan Misrdagi qullik sharmandaligini olib
tashladim”, — dedi. Shuning uchun o‘sha joy bugungacha Gilgal* deb ataladi. 10 Isroil
xalqi Gilgalda turgan paytlarida oyning o‘n to‘rtinchi kunida* kechqurun Yerixo yonidagi
tekislikda Fisih ziyofatini o‘tkazdilar. 11 Fisih ziyofatining ertasi kuniyoq ular o‘sha
yerning hosilidan pishirilgan xamirturushsiz non* va qovurilgan don yedilar. 12 Isroil
xalqi o‘sha yurtda yetishtirilgan hosilni yegan kundan boshlab, Xudo ularga manna*
yubormay qo‘ydi. O‘sha yil Isroil xalqi Kan’on yerida yetishtirilgan hosildan yedi, ular
mannani boshqa ko‘rmadilar.

Yoshua va qilich ushlab turgan kishi

13 Bir kuni Yoshua Yerixo shahri yaqinida bo‘lganda, qarshisida qilich ushlagan bir
kishini ko‘rib qoldi. Yoshua uning oldiga borib: “Sen biznikimisan yoki dushman
tarafdamisan?” — deb so‘radi. 14 “Hech qaysisi, — deb javob berdi u kishi, — men
Egamiz lashkarining lashkarboshisiman. Mana, keldim.” Yoshua muk tushib, unga ta’zim
qildi. “Qulingizga nima buyurasiz, hazratim?” — deb so‘radi Yoshua. 15 Egamiz
lashkarining lashkarboshisi Yoshuaga shunday dedi: “Oyoq kiyimingni yech, sen turgan
yer muqaddasdir.” Yoshua u aytganday qildi.

Yerixo qulaydi

16 Yerixoliklar Isroil xalqidan qo‘rqib, shahar darvozalarini mahkamlab yopib,
qo‘riqchilar qo‘yishdi. Endi shaharga hech kim kirolmas, u yerdan hech kim chiqolmas
edi.

6–BOB

1 Egamiz Yoshuaga shunday dedi: “Mana, Yerixo shahrini shohiyu sipohlari bilan birga
sening qo‘lingga berdim. 2 Shahar atrofini barcha jangchilar bilan bir marta aylan. Olti
kun shunday qilasan. 3 Yettita ruhoniy Ahd sandig‘ining oldida yursin. Ularning qo‘lida
qo‘chqor shoxidan qilingan bittadan burg‘u bo‘lsin. Yettinchi kuni shahar atrofini yetti
marta aylaninglar, ruhoniylar burg‘uni chalib yurishsin. 4 O‘sha kuni burg‘ularning uzoq

chalinganini eshitishi bilanoq, hamma bor ovozi bilan baqirsin. Shunda shaharning devorlari qulaydi, hamma shaharga hujum qilib, to‘g‘ri kirib boraveradi.” 5 Yoshua ruhoniylarni chaqirib, ularga shunday dedi: “Ahd sandig‘ini ko‘taringlar, yettitangiz esa bittadan burg‘u olib, Egamizning Ahd sandig‘i oldida yuring.” 6 Odamlarga esa: “Borib, shaharni aylaninglar, qurollangan jangchilarning hammasi Egamizning Sandig‘i oldida borsin”, — dedi.

7 Yoshua xalqqa buyurganday, Egamiz oldida yettita ruhoniy burg‘ularni chalib borishar, Egamizning Ahd sandig‘i esa ularning orqasidan borardi. 8 Qurollangan kishilar burg‘u chalayotgan ruhoniylar oldidan borishdi, Sandiqning orqasidan esa qorovullar bo‘linmasi bordi. Burg‘ular to‘xtamay chalinib turar edi. 9 Yoshua xalqqa shunday degan edi: “Men aytmagunimcha, sizlar baqirmang, ovozingizni chiqarmang. Men sizlarga, baqiringlar, deb aytgan kundagina baqirasizlar.” 10 Egamizning Sandig‘i shaharni bir marta aylanib keldi. Ular qarorgohga qaytib kelib, tunni o‘sha yerda o‘tkazishdi.

11 Yoshua ertasiga saharda turdi, ruhoniylar yana Egamizning Sandig‘ini ko‘tarishdi. 12 Yettita burg‘uni ko‘targan yetti ruhoniy Egamiz Sandig‘ining oldida borishdi. Ular burg‘ularni to‘xtamay chalishardi. Qurollangan kishilar esa ularning oldida borishardi. Egamizning Sandig‘i orqasida esa qorovullar bo‘linmasi borardi, burg‘ular to‘xtamay chalinayotgan edi. 13 Ikkinchi kuni ham ular shahar atrofini bir marta aylanib, qarorgohga qaytib kelishdi. Ular olti kun shunday qildilar.

14 Yettinchi kuni erta tongda turib, oldingiday shaharning atrofini aylandilar, faqat o‘sha kuni yetti marta aylanishdi. 15 Yettinchi marta aylanayotganda, ruhoniylar burg‘uni chalar ekan, Yoshua odamlarga shunday dedi: “Baqiringlar, chunki Egamiz shaharni bizga bergan. 16 Shahar aholisiyu shahar ichidagi hamma narsa Egamizga bag‘ishlanib, yo‘q qilinsin*. Faqat fohisha Rahoba va uning xonadon ahli tirik qoladi, chunki u biz yuborgan ayg‘oqchilarni yashirgan edi. 17 Sizlar esa Egamizga bag‘ishlangan narsalarning hech biriga yaqinlashmang, tag‘in o‘sha narsalarni olib, o‘zingizni halok qilmang. Isroil xalqining qarorgohiga kulfat keltirmang, qarorgoh vayron bo‘lmasin. 18 Chunki barcha oltin, kumush, hamma bronza va temirdan yasalgan idishlar Egamizga bag‘ishlangandir. Ular Egamizning xazinasiga keltirilsin.” 19 Ruhoniylar burg‘ularni chaldilar. Xalq burg‘u tovushini eshitishi bilanoq baland ovoz bilan baqirgan edi, butun shahar devorlari qulab tushdi. Isroil jangchilari turgan joylaridan to‘g‘ri shaharga kirib, unga hujum qilishdi. Isroil jangchilari shaharni qo‘lga kiritishdi. 20 Ular shahardagi hammani, erkagu ayollarni, yoshu qarilarni, mol–qo‘y, eshaklarni — butun jonzotni qirib tashladilar.

21 Yoshua o‘sha yerni tekshirib kelgan ikki kishiga aytdi: “Fohishaning uyiga boringlar. Ichgan ontingizga amal qilib, u bilan uyidagilarining hammasini olib chiqing.” 22 Ayg‘oqchilik qilgan kishilar borib, Rahobani, uning ota–onasini, aka–ukalarini, hamma qarindoshlarini shahardan olib chiqib, ularni Isroil qarorgohining yoniga, xavfsiz joyga keltirdilar*. 23 Isroil jangchilari shaharni uning ichidagi bor narsasi bilan yondirib tashladilar. Faqat oltin, kumush, bronza va temirdan yasalgan idishlarni Egamizning uyi* xazinasiga keltirdilar. 24 Fohisha Rahoba va uning hamma qarindoshlarini Yoshua saqlab qoldi, chunki Yoshua Yerixoni tekshirib kelish uchun yuborgan ayg‘oqchilarni u yashirgan edi. Uning xonadoni o‘shandan beri Isroilda yashaydi*.

25 Keyin Yoshua qasam ichib, quyidagilarni aytdi:

“Yerixo shahrini qayta qurmoqchi bo‘lgan odam
Egamiz oldida la’nati bo‘lsin!*
U o‘z to‘ng‘ich o‘g‘lining joni evaziga shahar poydevorin yotqizar,
Kenja o‘g‘lining joni evaziga darvozalar o‘rnatar!”

26 Egamiz Yoshua bilan birga edi. Yoshuaning shuhrati butun yurtga yoyildi.

7–BOB

Oxunning gunohi

1 Ammo Isroil xalqi bag‘ishlangan narsalar* haqida Egamiz bergan amrni buzdi. Oxun ismli bir kishi bag‘ishlangan narsalarning bir nechtasini olgan ekan. Oxun Yahudo qabilasidan bo‘lib, Zerax urug‘idan bo‘lgan Zimrining* nevarasi, Karmining o‘g‘li edi. Egamiz Isroil xalqidan qattiq g‘azablandi*.

2 Shu orada Yoshua bir necha kishini tanlab, ularga: “Borib, Ay shahrini* tekshirib kelinglar”, — dedi. Ay shahri Baytilning sharqida, Bayt–Obun yaqinida joylashgan edi. Ular borib, tekshirdilar. 3 Qaytib kelib, Yoshuaga: “Hammamiz borishimiz shart emas, ikki–uch mingta odam chiqib hujum qilsa, bas. Ay aholisining soni kam, shuning uchun butun xalq u yerga borib ovora bo‘lmasin”, dedilar. 4 Shunday qilib, uch mingtacha odam shaharga hujum qildi, lekin ular Ay aholisining oldiga tushib qochdilar. 5 Ayliklar shahardan chiqib, Isroil jangchilarini tosh qaziladigan joygacha* quvib bordilar. Qir yon bag‘rida o‘ttiz oltitacha Isroil odamlarini o‘ldirdilar. Bu hodisadan keyin butun Isroil xalqining yuragi orqaga tortib ketdi.

6 Shunda Yoshua bilan Isroil oqsoqollari qayg‘udan kiyimlarini yirtib, boshlariga tuproq sochdilar. Egamizning Sandig‘i oldida yerga muk tushishdi–da, kechgacha shu holda qolishdi. 7 Yoshua shunday dedi: “Ey Egamiz Rabbiy! Nima uchun bu xalqni Iordan daryosidan olib o‘tding? Nahotki bizlarni Amor xalqining qo‘liga berib, yo‘q qilish uchun shunday qilgan bo‘lsang?! Biz Iordanning narigi tomonida qolaversak bo‘lmasmidi?! 8 Ey Rabbiy, yana nima ham derdim, mana, Isroil xalqi dushmanlarining oldiga tushib qochdi. 9 Endi Kan’on xalqlari va mana shu yerlar aholisining hammasi bu haqda eshitib bizni qurshab oladilar. Nomimizni yer yuzidan o‘chirib yuboradilar. Agar shunday bo‘lsa, ulug‘vorligingni qanday qilib ko‘rsatasan?”

10 Egamiz Yoshuaga dedi: “O‘rningdan tur! Nima uchun muk tushib yotibsan? 11 Isroil xalqi gunoh qildi, ular bilan qilgan ahdimni buzdi. Ular Menga bag‘ishlangan narsalardan o‘g‘irlab olishdi. Buning ustiga, aldab, o‘g‘irlangan narsalarni o‘zlarining narsalari orasiga yashirib qo‘ydilar. 12 Shuning uchun Isroil xalqi dushmanlariga bas kela olmayapti. Chunki ularning o‘zi ham yo‘q qilinadigan, Menga bag‘ishlangan narsaday bo‘lib qolgan. Endi ular dushmanlariga mag‘lub bo‘lib qochadilar. Menga bag‘ishlangan narsalarni orangizdan yo‘q qilmasangiz, Men sizlar bilan birga bo‘lmayman.

13 Endi Isroil xalqini pokla. Ularga shunday degin: o‘zingizni ertangi kun uchun tayyorlab, poklang. Isroil xalqining Xudosi — Egamiz shunday aytmoqda: «Ey Isroil, orangizda Menga bag‘ishlangan narsalar bor. Orangizdagi shu narsalarni olib tashlamaguningizcha, dushmanlaringizga bas kela olmaysiz.»

14 Shuning uchun ertalab barcha qabilalar birma–bir Egamizning huzuriga kelishadi.
Egamiz bir qabilani tanlaydi*. Ana shu qabilaning urug‘lari ham birma–bir keladi.
Egamiz ular orasidan bir urug‘ni tanlaydi. O‘sha urug‘ning oilalari birma–bir kelishadi.
Egamiz bir oilani tanlaydi. O‘sha oilaning a’zolari birma–bir keladi. 15 La’natlangan
narsalarni olgan odamni Egamizning O‘zi ko‘rsatadi. O‘sha odam bor narsasi bilan
olovda yondiriladi, chunki u Egamiz bilan qilingan ahdni buzib, Isroilda aql bovar
qilmaydigan ish qildi.”
16 Shunday qilib, ertasi kuni tongda, Yoshuaning buyrug‘iga ko‘ra, Isroil qabilalari
birma–bir Egamizning huzuriga kelishdi. Egamiz Yahudo qabilasini tanladi. 17 Endi
Yahudo qabilasining urug‘lari birma–bir keldi, shunda Zerax urug‘i tanlandi. Zerax
urug‘ining oilalari birma–bir kelganda, Zimri oilasi tanlandi. 18 Zimri oila a’zolari birma–
bir kelishdi, Karmi o‘g‘li Oxun tanlandi. U Yahudo qabilasidan bo‘lib, Zerax urug‘idan
bo‘lgan Zimrining nevarasi edi. 19 Yoshua Oxunga shunday dedi: “O‘g‘lim, haqiqatni
aytaman, deb Isroil xalqining Xudosi — Egamizning nomi bilan qasam ich, gunohingni
tan olgin. Nima qilganingni yashirmay menga aytib ber.” 20 Oxun Yoshuaga shunday
javob berdi: “Ha, to‘g‘ri. Isroil xalqining Xudosi — Egamizga qarshi gunoh qilgan
menman. 21 O‘sha kuni o‘lja orasida Shinardan* keltirilgan chiroyli to‘nni, 500 misqol*
kumush va og‘irligi 125 misqol* keladigan bir bo‘lak tillani ko‘rib qoldim. Ko‘nglim
tusab, ularni oldim. Ularni chodirimning ichida yerga ko‘mib qo‘yganman, kumush eng
tagida.”
22 Yoshua bir nechta odamni yubordi. Ular chodirga yugurib borib qarashsa, u
narsalar rostdan ham o‘sha yerda yashirilgan ekan. Ularning eng tagida kumush bor edi.
23 Ular narsalarni chodirdan olib, Yoshua va butun Isroil xalqiga olib kelishdi. Ular
narsalarni Egamiz oldiga yoyib qo‘yishdi. 24 Keyin Yoshua va butun Isroil xalqi Zerax
o‘g‘li Oxunni o‘g‘irlangan kumush, to‘n, tilla bo‘lagi hamda o‘g‘il–qizlari, mol–qo‘ylari,
eshaklari, chodiriyu bor narsasi bilan birga Oxor soyligiga olib borishdi. 25 Yoshua:
“Boshimizga rosa ham kulfat keltirding–ku. Mana endi bugun Egamiz sening boshingga
ham kulfat keltiradi”, — dedi. Butun Isroil xalqi Oxunni va uning oilasini toshbo‘ron
qilib o‘ldirdi–da, ularning jasadlarini olovda kuydirdi. 26 Keyin ularning ustiga katta bir
tosh uyumini to‘pladi, toshlar bugungacha o‘sha yerdadir. Shuning uchun ushbu yer
o‘sha paytdan beri Oxor* soyligi deb ataladi. Shundan keyin Egamiz g‘azabidan tushdi.

8–BOB

Ay shahri mag‘lub bo‘ladi va vayron qilinadi

1 Egamiz Yoshuaga aytdi: “Qo‘rqma, vahimaga tushma, barcha jangga yaroqli
erkaklarni boshlab, Ay shahriga borgin. Mana, Ay shohini uning xalqi, shahri va yeri
bilan birga senga berganman. 2 Yerixo va uning shohini nima qilgan bo‘lsangiz, Ay va
uning shohini ham xuddi shunday qilasizlar. Faqat shahardagi mol–mulklarni va barcha
chorvani o‘zingizga o‘lja qilib olsangiz bo‘ladi. Shaharning orqasida pistirma qo‘yinglar.”
3 Yoshua va hamma jangga yaroqli erkaklar Ayga hujum qilishga tayyorlanishdi.
Yoshua o‘z lashkari orasidan o‘ttiz ming jangchini tanlab oldi. Tunda jo‘natayotib,
4 ularga shunday buyruq berdi:
— Borib, shaharning orqasida pistirma qo‘ying, shahardan uzoqqa bormang,
hammangiz sergak bo‘lib turing. 5 Men odamlarim bilan shaharga yaqinlashaman. Ular

bizga qarshi chiqqanda, oldingiday biz ulardan qochamiz. 6 Bizni quvib, dushmanlar
shahardan ancha uzoqlashib ketadi. Ular o‘zlaricha: “Dushmanlarimiz yana oldingiday
bizdan qochyapti”, deb o‘ylashadi. Biz qochayotganimizda esa 7 sizlar pistirmadan
chiqib, shaharni olasizlar. Egangiz Xudo uni sizlarning qo‘lingizga beradi. 8 Shaharni
olganingizdan keyin, Egamiz buyurganday, uni yondirasizlar. Mana shu buyruqlarni
bajaring.
9 Shu so‘zlar bilan Yoshua ularni jo‘natib yubordi. Ular Ayning g‘arbida — Ay va
Baytil oralig‘ida pistirma qo‘yib, o‘sha yerda kutib yotdilar. O‘sha tunni Yoshua
qarorgohda o‘tkazdi.
10 Ertasi kuni, tong payti Yoshua jangchilarini bir joyga yig‘ib, qabilalarning
boshliqlari bilan birga ularni Ayga boshlab bordi. 11 Barcha jangga yaroqli kishilar u
bilan ketdi. Ular shaharga yaqinlashib, Ayning shimolida qarorgoh qurishdi. Ay va
ularning orasida jarlik bor edi. 12 Yoshua besh mingga yaqin odamni shaharning
g‘arbiga, Ay va Baytil oralig‘ida pistirma qo‘yishga yubordi. 13 Shunday qilib, jangchilar
jangovar holatga keltirildi. Ularning asosiy qismi shaharning shimolida, qorovullar
bo‘linmasi esa shaharning g‘arbida edi. Yoshua esa o‘sha tunni jarlikda o‘tkazdi. 14 Buni
ko‘rgan Ay shohi ertasi kuni tongda shoshilib, butun lashkari bilan Iordan vodiysi*
ro‘parasidagi bir joyga Isroil xalqiga qarshi jang qilishga bordi. Ammo shoh shaharning
orqasida o‘ziga qarshi pistirma qo‘yilganini bilmas edi. 15 Yoshua va butun Isroil lashkari
o‘zlarini yengilayotganday ko‘rsatib, sahro tarafga* qochishdi. 16 Yoshua va Isroil
qo‘shinini quvish uchun Ay shahridagi barcha erkaklar chaqirildi. Ular Yoshua va Isroil
lashkarini quvib, shahardan ancha uzoqlashib ketishdi. 17 Ay va Baytilda Isroil lashkarini
quvish uchun chiqmagan birorta ham erkak qolmadi. Shaharni qo‘riqlashga hech kimni
qoldirmay, Isroil lashkarini ta’qib qildilar.
18 Egamiz Yoshuaga shunday dedi: “Qo‘lingdagi nayzani Ay tomonga uzat, o‘sha
shaharni sening qo‘lingga beraman.” Yoshua qo‘lidagi nayzasini shahar tomonga uzatdi.
19 U qo‘lini uzatishi bilanoq jangchilar pistirmadan otilib chiqib, shaharga hujum
qilishdi. Ular shaharni qo‘lga olib, darrov unga o‘t qo‘yishdi. 20-21 Shahardan tutun
chiqayotganini ko‘rgan Yoshua va Isroil lashkari, “Pistirmadagilar shaharni oldi” deb,
ortiga qaytgan edilar. Ular Ay shahrining odamlariga hujum qila boshlagan edilar. Ay
lashkari orqaga qarasa, yonayotgan shaharning tutuni ko‘kka ko‘tarilyapti. Ular na u
yoqqa, na bu yoqqa qocha olardilar, chunki sahroga qochgan Isroil lashkari endi orqaga
burilib, ularga qarshi chiqqan edi. 22 Isroil lashkarining shahardagi qismi ham Ay
odamlariga qarshi chiqqandi. Isroil lashkari ularni orqa tomondan ham, old tomondan
ham o‘rab olgan edi. Isroil lashkari ularning hammasini qirib tashladi. Hech kim tirik
qolmadi, birortasi ham qochib keta olmadi. 23 Ammo Ay shohini tiriklayin ushlab,
Yoshuaning huzuriga olib kelishdi.
24 Isroil lashkari shahar tashqarisida — sahroda butun Ay qo‘shinini qirib tashlashdi.
Ularning hammasi halok bo‘lgandan keyin Isroil lashkari Ayga borib, u yerda
qolganlarning hammasini yo‘q qildi. 25 O‘sha kuni butun Ay aholisi, hammasi bo‘lib o‘n
ikki mingta erkak va ayol halok bo‘ldi. 26 Ayda yashovchilarning hammasi yo‘q
qilinmaguncha, Yoshua nayza ushlagan qo‘lini tushirmadi. 27 Egamiz Yoshuaga
buyurganday, Isroil lashkari faqatgina mol–qo‘y va shahar aholisining mol–mulkini
o‘zlariga o‘lja qilib oldi. 28 Yoshua Ay shahrini yondirib yubordi. O‘sha shahar
bugungacha* vayron bo‘lib yotibdi. 29 Ay shohini esa qatl ettirib, jasadini tik o‘rnatilgan

xodaning uchiga qoqtirdi. Uning jasadi kechgacha* o‘sha yerda osilib turdi. Quyosh botgandan keyin, Isroil jangchilari Yoshuaning buyrug‘iga ko‘ra, jasadni xodadan tushirib, shahar darvozasining ostonasiga tashladilar. Uning ustiga katta tosh uyumi to‘pladilar. Shu tosh uyumi bugungacha o‘sha yerdadir.

Yoshua Ebal tog‘ida Tavrot kitobidan o‘qiydi

30 Keyin Yoshua Isroil xalqining Xudosiga — Egamizga Ebal tog‘ida qurbongoh
qurdi*. 31 U qurbongohni Egamizning quli Musoning Tavrot kitobidagi* ko‘rsatmalarga*
rioya qilgan holda, temir asbob tegmagan, yo‘nilmagan toshlardan qurgan edi. Xalq
o‘sha qurbongohda Egamizga kuydiriladigan qurbonlik va tinchlik qurbonliklari keltirdi.
32 O‘sha yerda — Isroil xalqining ko‘zi oldida Yoshua toshlarga Muso yozgan
qonunlarning nusxasini yozdi.
33 Qabila oqsoqollari, nazoratchilari, hakamlari, butun Isroil xalqi va ularning orasida
yashayotgan qondosh bo‘lmagan odamlar Egamizning Ahd sandig‘i qarshisida — uni
ko‘tarib turgan levi ruhoniylarining oldida turishdi. Xalqning yarmi Garizim tog‘i
etagida, yarmisi Ebal tog‘i* etagida turardi. Egamizning quli Muso, Isroil xalqini duo
qilish vaqti kelganda shunday qilinglar, deb buyurgan edi*. 34 Keyin Yoshua Tavrot
kitobida yozilganday, qonunlarning har bir so‘zini, baraka va la’natlarga oid parchalarni
o‘qidi. 35 Butun Isroil jamoasi oldida, ayollaru bolalar, Isroil xalqi orasida yashayotgan,
ularga qondosh bo‘lmaganlar oldida, Muso ularga buyurgan qonunlarni Yoshua bitta
qoldirmay o‘qidi.

9–BOB

Givonliklar Yoshuani aldashadi

1 Iordan daryosining g‘arb tomonida turadigan barcha shohlar Yoshuaning
g‘alabalari haqida eshitishgan edi. Ular qirlarda, qirlarning etaklarida, butun O‘rta yer
dengizi* qirg‘og‘i bo‘ylab, to shimoldagi Lubnongacha bo‘lgan joyda yashaydigan Xet,
Amor, Kan’on, Pariz, Xiv va Yobus xalqlarining shohlari edilar. 2 O‘sha shohlar o‘z
qo‘shinlarini birlashtirib, Yoshua va butun Isroil xalqiga qarshi jang qilishga to‘pladilar.
3 Ammo Givon* aholisi Yoshuaning Yerixo va Ay shaharlarini nimalar qilgani haqida
eshitib, 4 ayyorlik bilan ish tutdi. Ulardan bir nechtasi yo‘lga tayyorgarlik ko‘rib*, o‘z
eshaklariga eski xurjunlarni va yirtilib yamalgan eski meshlarni yukladilar. 5 Oyoqlariga
eski, yamalgan oyoq kiyimlar, ustilariga esa juldur kiyimlar kiyishdi. Ular olgan
nonlarning suvi qochib, mog‘or bosgan edi. 6 Ular Gilgaldagi qarorgohga* borib, Yoshua
va butun Isroil xalqiga:

— Biz juda ham olis bir yurtdan keldik, biz bilan sulh tuzinglar, — deyishdi. 7 Ammo
Isroil xalqi Xiv xalqidan bo‘lgan bu odamlarga* shunday dedi:

— Balki sizlar bizga yaqin joyda yasharsizlar, biz qanday qilib sizlar bilan sulh
tuzamiz?*

8 Shunda ular Yoshuaga:

— Biz sizlarning qullaringizmiz, — deyishdi. Yoshua esa ulardan:

— Sizlar kimsizlar? Qayerdan keldingizlar? — deb so‘radi. 9 Ular Yoshuaga shunday
deb javob berishdi:

— Biz sizning qullaringizmiz, Egangiz Xudoni deb juda ham uzoq bir yurtdan keldik.
Biz sizning Xudoyingiz haqida eshitdik. U Misrda nima qilganini, 10 Iordanning

sharqidagi Amor xalqlarining ikki shohini — Xashbon shohi Sixo‘nni va Ashtaro‘tda yashagan Bashan shohi O‘gni nimalar qilganini* eshitdik. 11 Shuning uchun oqsoqollarimiz va yurtimiz aholisi bizni sizlarning oldingizga yuborib: “Uzoq safarga tayyorlaninglar. Isroil xalqi oldiga yetib borgach, bizning xalqimiz ularga qul ekanligini aytib, ular bilan sulh tuzib kelinglar”, deb tayinlashdi. 12 Mana, nonimizga qarang, yo‘lga chiqqanimizda issiqqina edi, endi esa suvi qochib, mog‘or bosib qolgan. 13 Mana bu meshlar sharobga to‘ldirganimizda yangi edi, endi esa qarang, yorilib ketgan, ust–boshimiz va oyoq kiyimlarimiz ham yo‘l uzoqligidan eskirib ketdi.

14 Isroil oqsoqollari ularning oziq–ovqatlarini tekshirib ko‘rdilar, Egamizdan esa yo‘l–yo‘riq so‘ramadilar. 15 Yoshua ular bilan tinchlik sulhini tuzdi. Jamoa oqsoqollari ularni o‘ldirmaslikka qasam ichib, sulhni ma’qulladilar.

16 Sulh tuzilgandan keyin uch kun o‘tgach, Isroil xalqi Givonliklar o‘zlariga yaqin joyda yashashlarini eshitib qoldi. 17 Isroil xalqi yo‘lga chiqib ularning shaharlariga uch kunda yetib borishdi. Givon, Xafira, Baro‘t va Xirat–Yo‘rim* ularga qarashli shaharlar edi. 18 Ammo Isroil xalqi ularga hujum qilmadi, chunki jamoa oqsoqollari Isroil xalqining Xudosi — Egamiz nomi bilan qasam ichib, ularga va’da berishgan edi. Shunda butun jamoa ming‘irlab, oqsoqollarga nolidi. 19 Oqsoqollar jamoaga shunday dedilar:

— Biz ularga Isroil xalqining Xudosi — Egamiz nomi bilan qasam ichib va’da berganmiz, endi biz ularga tegmasligimiz kerak. 20-21 Mayli, yashayverishsin, ichgan qasamimizni buzib, boshimizga Egamizning g‘azabini keltirmaylik. Ammo Givonliklar butun jamoa uchun o‘tin yoruvchi va suv tashuvchi bo‘lib qolsinlar.

Shunday qilib, oqsoqollar Givonliklarga nisbatan o‘z va’dasida qoldilar.

22 Yoshua Givonliklarni chaqirib so‘radi:

— Bizga yaqin joyda yasharkansiz. Nimaga, sizlardan uzoq joyda yashaymiz, deb bizni aldadingiz? 23 Shuning uchun endi sizlar la’natisizlar, to abad Xudoyimning uyi* uchun o‘tin yoruvchi, suv tashuvchi qul bo‘lib qolasizlar.

24 Ular Yoshuaga javob berdilar:

— Biz aniq eshitdik, Egangiz Xudo O‘zining quli Musoga butun yurtni sizlarga berib, uning butun aholisini qirib tashlashni buyuribdi. O‘z jonimizni o‘ylab, sizlardan qo‘rqqanimizdan shu ishni qildik. 25 Endi biz sizning qo‘lingizdamiz, nima to‘g‘ri va nima yaxshi, deb o‘ylasangiz, bizni shunday qiling.

26 Isroil xalqi Givonliklarni o‘ldirishiga Yoshua yo‘l qo‘ymadi. 27 Ammo o‘sha kuni Yoshua ularni qurbongoh va Isroil jamoasi uchun o‘tin yoruvchi va suv tashuvchi qilib qo‘ydi. Egamizning qurbongohi qayerda qurilishidan qat’i nazar, ular o‘sha vazifalarni bajaradigan bo‘lishdi. Hatto bugungacha* ularning vazifasi shudir.

10–BOB

Isroil xalqi janubdagi shohlarni mag‘lub qiladi

1 Quddus* shohi Odonisidiq eshitdiki, Yoshua Ay shahrini qo‘lga kiritibdi, uni butunlay vayron qilibdi, Yerixo va uning shohini nimalar qilgan bo‘lsa, Ay shahrini va uning shohini ham shunday qilibdi. Givonliklar ham Isroil xalqi bilan sulh tuzganini, endi ular bilan tinch–totuv yashayotganlarini Odonisidiq eshitib, 2 juda qo‘rqib ketdi. Axir, Givon shahri ulkan shahar bo‘lib, o‘z shohiga ega bo‘lgan shaharlarday katta, Ay shahridan ham kattaroq edi–da. Givon aholisining barcha erkaklari ham juda mohir

jangchi edilar. 3 Xevron shohi Xo‘xam, Yarmut shohi Pirom, Laxish shohi Yofiya va
Eglon* shohi Dabir Quddus shohi Odonisidiqdan shunday xabar olishdi: 4 “Kelib, menga
yordam bering. Birga Givonga hujum qilaylik, chunki ular Yoshua va butun Isroil xalqi
bilan sulh tuzibdi.” 5 Shunda Quddus shohi, Xevron shohi, Yarmut shohi, Laxish shohi va
Eglon shohi — Amor xalqlarining beshala shohlari kuchlarini yig‘dilar. Barcha
qo‘shinlari bilan Givonni o‘rab olib, hujum qildilar.

6 Givonliklar Yoshuaga — Gilgaldagi qarorgohga shunday xabar yubordilar:
“Qirlardagi hamma Amor shohlari o‘z qo‘shinlari bilan bizlarga qarshi chiqishdi.
Qullaringizni tark etmang! Tez kelib bizlarni qutqaring, bizga yordam bering.” 7 Yoshua
butun lashkari bilan Gilgaldan chiqdi. Ularning orasida eng zo‘r jangchilar ham bor edi.
8 Egamiz Yoshuaga shunday dedi: “Ulardan qo‘rqma, ularni sening qo‘lingga berganman,
ularning birortasi ham senga bas kela olmaydi.” 9 Yoshua o‘z lashkari bilan Gilgaldan*
chiqqandan keyin tuni bilan yo‘l bosib, Amor qo‘shinlarining ustiga to‘satdan bostirib
bordi. 10 Butun Isroil lashkari oldida Egamiz Amor qo‘shinlarini vahimaga soldi. Isroil
lashkari Givonda ularning ko‘plarini qilichdan o‘tkazdi. Bayt–Xo‘ronga chiqadigan yo‘l
bilan quvib, to Ozikah va Makkedoga yetib* borguncha yo‘lda Amor qo‘shinlarini yo‘q
qildi.

11 Ular Isroil lashkaridan qochib, Bayt–Xo‘rondan pastga tushayotganlarida, to
Ozikahga yetgunlaricha Egamiz osmondan ularning ustiga yirik–yirik do‘l yog‘dirgan
edi. Ularning ko‘plari do‘l ostida halok bo‘ldi. Isroil lashkarining qilichidan halok
bo‘lganlardan ko‘ra, do‘l urib o‘lganlar ko‘proq edi.

12 Egamiz Amor xalqlarini Isroil lashkarining qo‘liga bergan kuni Yoshua Egamizga
gapirib, butun Isroil xalqi oldida shunday dedi:

> “Ey quyosh, tek turgin Givon shahrida,
> Ey oy, sen esa Oyjavlon vodiysida*.”

13 Xalq o‘z dushmanlaridan qasos olmaguncha, quyosh ham, oy ham qimirlamay,
osmonda to‘xtab turaverdi. “Yoshur” kitobida* shu haqida yozilgan. Quyosh osmonning
o‘rtasida to‘xtab, kun bo‘yi botmay turdi. 14 O‘sha kuni Isroil xalqi uchun Egamizning O‘zi
jang qildi. Undan oldin ham, keyin ham Egamiz insonning iltijosiga javob bergan bunday
kun bo‘lmagan.

15 Shundan keyin Yoshua va butun lashkar Gilgaldagi qarorgohga qaytib ketishdi.

Yoshua janubdagi beshta shohni o‘ldiradi

16 Beshala shoh qochib, Makkedodagi g‘orga yashirinib olishgan edi. 17 Yoshuaga:
“Beshta shoh topildi, ular Makkedodagi g‘orning ichiga yashirinib olishgan ekan”, deb
aytishdi. 18 Yoshua shunday dedi: “Katta toshlar olib, g‘orning og‘zini yopinglar. Shohlar
chiqib ketmasligi uchun u yerga qo‘riqchilar tayinlanglar, 19 lekin hammangiz ham o‘sha
yerda qolib ketmang. Dushman lashkarlarini quvib, ularga orqadan hujum qiling. Ular
o‘z shaharlariga kirishlariga yo‘l qo‘ymang, chunki Egangiz Xudo dushmanlarni sizning
qo‘lingizga bergan.” 20 Yoshua va butun Isroil lashkari dushmanlarning deyarli
hammasini qilichdan o‘tkazdi. Faqat bir–ikkitasigina o‘z mustahkam shaharlariga
qochib borib, tirik qoldi. 21 Butun Isroil lashkari Makkedodagi qarorgohga sog‘–salomat
qaytib bordi. Shundan keyin o‘sha yerdagilardan hech kim Isroil xalqiga qarshi
gapirishga jur’at eta olmadi.

22 Yoshua: “G‘orning og‘zini ochib, beshta shohni mening oldimga olib kelinglar”, deb
buyurdi. 23 Uning aytganini qilib, beshta shohni — Quddus, Xevron, Yarmut, Laxish va
Eglon shaharlarining shohlarini g‘ordan olib chiqib, uning oldiga olib kelishdi. 24 Yoshua
butun Isroil jangchilarini yig‘ib, o‘sha beshta shohni yerga yotqizdi. Jangchilarning
boshliqlariga esa shunday dedi: “Yaqinroq kelib, oyoqlaringizni shohlarning bo‘yinlariga
qo‘yinglar.” Ular kelib, oyoqlarini shohlarning bo‘yinlariga qo‘ydilar. 25 Yoshua gapida
davom etdi: “Endi qo‘rqmang, vahimaga tushmang, faqatgina dadil va botir bo‘linglar.
Egamiz sizga qarshi chiqadigan hamma dushmanlarni shu ko‘yga soladi.” 26 Shundan
keyin Yoshua shohlarni o‘ldirib, ularning jasadlarini tik o‘rnatilgan beshta xodaning
uchiga qoqtirdi. Jasadlar kechgacha xodalarda osilib turdi. 27 Quyosh botganda,
Yoshuaning buyrug‘iga ko‘ra, shohlarning jasadlarini xodalardan tushirib, ilgari o‘sha
shohlar yashiringan g‘orning ichiga tashladilar. G‘orning og‘zini esa katta–katta toshlar
bilan yopib qo‘ydilar. O‘sha toshlar bugungacha o‘sha yerdadir.

Yoshua janubdagi shaharlarni vayron qiladi

28 Yoshua o‘sha kuni Makkedo shahrini* bosib oldi, uning aholisini shohi bilan birga
qilichdan o‘tkazdi. Shahardagi har bir kishini yo‘q qildi, u yerda birorta ham tirik jon
qolmadi. Yerixoning shohini nima qilgan bo‘lsa, Makkedoning shohini ham shunday
qildi.

29 Keyin Yoshua butun Isroil lashkari bilan Makkedodan Libna shahriga borib,
Libnaga hujum qildi. 30 Egamiz Libna va uning shohini ham Isroil lashkarining qo‘liga
berdi. Ular butun shahar aholisini qilichdan o‘tkazib, birorta ham tirik jon
qoldirmadilar. Yerixo shohini nima qilishgan bo‘lsa, Libna shohini ham shunday qilishdi.

31 Yoshua va barcha Isroil jangchilari Libnadan Laxish shahriga bordilar. Shaharni
qurshovga olib, hujum qilishdi. 32 Egamiz Laxishni Isroil lashkarining qo‘liga berdi. Ular
ikkinchi kuni shaharni bosib olishdi. Xuddi Libnadagiday bu shaharning ham butun
aholisini qilichdan o‘tkazishdi.

33 Gezer shahrining shohi Xo‘rom Laxish shahriga yordamga kelgan edi, Yoshua
Xo‘romni va uning butun qo‘shinini birorta ham tirik jon qoldirmay yo‘q qildi.

34 Isroil lashkari Yoshua bilan Laxishdan chiqib Eglon shahriga bordi. Uni ham
qurshovga olib, hujum qildi. 35 Xuddi Laxishdagiday Eglonni ham bir kun ichida bosib
olib, uning barcha aholisini yo‘q qildi.

36 Bundan keyin Yoshua bilan Isroil lashkari Eglondan Xevron shahriga borishdi.
O‘sha shaharga hujum qilishdi. 37 Xevronni qo‘lga olib, uning shohini, butun aholisini,
hatto atrofidagi qishloqlarning aholisini ham butunlay yo‘q qildilar. Xuddi Eglondagiday
bitta ham tirik jon qoldirishmadi.

38 Keyin Yoshua butun Isroil lashkari bilan Davir shahriga borib, unga hujum qildi.
39 Shaharni qo‘lga kiritib, uning shohi, butun aholisi va hatto atrofidagi qishloqlarning
aholisini ham butunlay yo‘q qildi. Xevron, Libna shaharlari va ularning shohlariga nima
qilgan bo‘lsa, Davir va uning shohini ham xuddi shunday qilib, shaharda birorta ham
tirik jonzot qoldirmadi.

40 Yoshua butun yurtni — qirlarniyu Nagav cho‘lini*, g‘arbdagi qir etaklarini,
sharqdagi qir yon bag‘irlarini bosib oldi va u yerlarning shohlarini mag‘lub qildi. Isroil
xalqining Xudosi — Egamiz buyurganday, Yoshua hech kimni tirik qoldirmadi, hammani
qirib tashladi. 41 Yoshua Kadesh–Barnadan G‘azogacha bo‘lgan shaharlarni, butun

Go‘shen yerlarini*, shimoldagi Givongacha bo‘lgan yerlarni bosib oldi. 42 Yoshua bu
shohlar va ularning yerlarini bir yurishdayoq bosib oldi, chunki Isroil xalqining Xudosi
— Egamiz O‘z xalqi uchun jang qildi. 43 Keyin Yoshua Isroil lashkari bilan birga
Gilgaldagi qarorgohga qaytib bordi.

11–BOB

Isroil xalqi shimoldagi shohlarni mag‘lub qiladi

1 Xazor shahrining* shohi Yobin Yoshuaning g‘alabalari haqida eshitdi. U quyidagi
shohlarga shoshilinch xabar yubordi: Madon shohi Yo‘vovga, Shimron shohiga, Axshof
shohiga, 2 shimoldagi qirlarning shohlariga, Jalila ko‘lining* janubidagi Iordan
vodiysining* shohlariga, g‘arbdagi qir etaklari va Nafo‘t–Do‘r shohlariga, 3 sharq va
g‘arbdagi Kan’on xalqlarining shohlariga, Amor, Xet, Pariz xalqlarining shohlariga,
qirlardagi Yobus shohlariga, Mispax yeridagi* Xermon tog‘ining etagida yashaydigan Xiv
xalqiga. 4 Ular butun lashkarlari, juda ko‘p otlariyu jang aravalarini to‘plab, Isroil xalqiga
qarshi jang qilish uchun yig‘ilishdi. Ularning jangchilari dengiz qirg‘og‘idagi qumday
son–sanoqsiz edi. 5 Isroil xalqi bilan jang qilishga mana shu shohlarning hammasi
lashkarlarini birlashtirishdi. Ular Mirom* suvlari oldida qarorgoh qurdilar.

6 Egamiz Yoshuaga shunday dedi: “Ulardan qo‘rqmagin! Men O‘zim ularni Isroil
xalqining qo‘liga beraman, ertaga shu paytda ularning hammasi o‘lgan bo‘ladi. Ularning
otlarini mayib qilinglar, jang aravalarini yondiringlar.” 7 Yoshua o‘zining butun lashkari
bilan Miromga borib, dushman qo‘shinlari ustiga to‘satdan hujum qildi. 8 Egamiz Isroil
lashkariga dushmanlari ustidan g‘alaba berdi. Isroil lashkari dushmanlarini shimol
tomonda Buyuk Sidon va Misrafo‘t–Mayimgacha, sharq tomonda esa Mispax
vodiysigacha* quvib borib, ularning hammasini halok qildi. Dushmanlarning birortasi
ham tirik qolmadi. 9 Yoshua Egamiz buyurganday ularning otlarini mayib qildi, jang
aravalarini yondirib tashladi.

10 O‘shandan keyin Yoshua o‘z lashkari bilan orqaga qaytib, Xazor shahriga bordi.
Uni qo‘lga kiritib, shohini halok qildi. U paytda Xazor o‘sha shohliklar orasida eng
qudratlisi edi. 11 Isroil lashkari shahar aholisining hammasini butunlay yo‘q qildi. U
yerda birorta ham tirik jon qolmadi. Shaharni esa yondirib tashlashdi. 12 Yoshua bilan
Isroil lashkari o‘sha shaharlarning hammasini bosib olib, ularning shohlariyu barcha
aholisini qilichdan o‘tkazdi. Egamizning quli Muso buyurganday, ularni butunlay vayron
qildi. 13 Isroil lashkari tepaliklarda* qurilgan shaharlardan faqatgina Xazor shahrini
yondirib tashladi. 14 Isroil lashkari shaharlardagi mol–mulklarni va barcha chorvani
o‘zlariga o‘lja qilib oldilar. Ammo shaharlarning barcha aholisini qilichdan o‘tkazdilar. U
yerda birorta ham tirik jon qolmadi. 15 Egamiz O‘z quli Musoga bergan amrlarni Muso
Yoshuaga yetkazgan edi. Yoshua Muso aytganday qilib, barcha amrlarni bitta qoldirmay
bajardi.

Yoshua qo‘lga kiritgan yerlar

16 Shunday qilib, Yoshua butun yurtni — janubiy qirlaru o‘sha qirlarning etaklarini,
butun Nagav cho‘lini*, butun Go‘shen yerlarini*, Iordan vodiysini, shimoliy qirlar va
o‘sha qirlarning etaklarini bosib oldi. 17 Isroil xalqi bosib olgan yerning janubiy
chegarasi Seir* yonidagi Xalak tog‘i edi, shimoldagi chegarasi esa Xermon tog‘ining
etagida joylashgan Lubnon vodiysidagi Baal–Gad shahri edi. Yoshua o‘sha yerlarning

shohlarini mag‘lub qilib, hammasini halok qildi. 18 Bu shohlarni mag‘lub qilguncha,
Yoshua uzoq vaqt ular bilan urush qilgan edi. 19 Givondagi Xiv xalqidan tashqari* hech
bir shahar aholisi Isroil xalqi bilan sulh tuzmagan edi. Ularning hammasi jangda mag‘lub
bo‘lishdi. 20 Egamiz o‘sha xalqlarni o‘jaru takabbur qilib qo‘ygani uchun, ular Isroil
xalqiga qarshi jang qilaverdilar. Egamiz Musoga buyurganday, Isroil lashkari ularni
butunlay yo‘q qilib, shafqatsizlarcha o‘ldirishlari uchun shunday qilgan edi.
21 O‘sha paytda Yoshua qirlarda yashagan Onoq avlodini* yo‘q qilib tashladi. Ular
Xevron, Davir, Onov shaharlarida, butun janubiy va shimoliy qirlarda yashardilar.
Yoshua ularni o‘ldirib, shaharlarini vayron qildi. 22 Isroil xalqining yurtida Onoq
avlodidan hech kim qolmadi, faqatgina G‘azo, Gat va Ashdod shaharlarida* bir nechtasi
qoldi. 23 Shunday qilib, Musoga Egamiz aytganday, Yoshua butun yurtni qo‘lga kiritdi.
Yoshua bu yerlarni Isroil xalqining qabilalariga mulk qilib berdi. Endi yurtda tinchlik
barqaror bo‘ldi.

12–BOB

Iordan daryosining sharqida Muso mag‘lub qilgan shohlar

1 Muso boshchiligida Isroil xalqi Iordan daryosining sharqida bo‘lgan shohlarni
mag‘lub qilib, ularning yerlarini egallab olgan edi. Bu shohlar janubdagi Arnon
soyligidan shimoldagi Xermon tog‘igacha bo‘lgan yerlarda hukmronlik qilgan edi.
Ularning yerlari Iordan vodiysining* sharqidagi barcha yerlarni o‘z ichiga olar edi.
2 Isroil xalqi mag‘lub qilgan shohlardan biri Amor xalqining shohi Sixo‘n* edi. U
Xashbon shahrida yashagan edi. Uning shohligi Arnon soyligining chetida joylashgan
Aror shahrini va o‘sha soylikning o‘rtasidan to Yavoq daryosigacha cho‘zilgan joylarni,
ya’ni Giladning yarmini o‘z ichiga olar edi. Yavoq daryosi Ommon xalqi yerining
chegarasi edi. 3 Sixo‘n Iordan vodiysining sharq tomonida ham hukmronlik qilgan edi.
Bu hudud shimol tomonda Jalila ko‘lining* g‘arbiy qirg‘oqlarigacha, janub tomonda O‘lik
dengizgacha*, Bayt–Yashimo‘tdan Fisgax tog‘ tizmasining yon bag‘irlarigacha bo‘lgan
joylarni o‘z ichiga olar edi.
4 Mag‘lub bo‘lgan Bashan shohi O‘g* o‘z shaharlari Ashtaro‘t va Edreyda yashardi. U
Rafa xalqining* omon qolganlaridan biri edi. 5 Uning shohligi shimoldagi Xermon
tog‘igacha, sharqdagi Salko shahrigacha cho‘zilib, g‘arbdagi Gashur va Maxo
shohliklarining chegaralarigacha yetib borgan Bashan o‘lkasini ham o‘z ichiga olgan edi.
Bu shohlik yana Giladning shimoliy yarmini ham o‘z ichiga olib, Xashbon shohi Sixo‘n
hududi chegarasigacha yetib borardi. 6 Egamizning quli Muso va Isroil xalqi mana shu
ikki shohni mag‘lub qilib, ularning yerlarini egallab olishgan edi. Muso shu yerlarni
Ruben, Gad qabilalari va Manashe qabilasining yarmiga mulk qilib bergan edi.

Iordan daryosining g‘arbida Yoshua mag‘lub qilgan shohlar

7 Iordanning g‘arbida — shimoldagi Lubnon vodiysida joylashgan Baal–Gaddan
tortib, janubdagi Seir* yonida joylashgan Xalak tog‘igacha bo‘lgan joylarda yashagan
shohlarni Isroil xalqi Yoshua boshchiligida mag‘lub qildi. O‘sha shohlarning yerlarini
Yoshua Isroil qabilalariga mulk qilib bo‘lib berdi. 8 Qirlarni, g‘arbdagi qir etaklarini,
Iordan vodiysini, uning g‘arbidagi qir yon bag‘irlarini, Yahudo adirlaridagi va Nagav
cho‘lidagi* yerlarni bo‘lib berdi. Bu yerlarda Xet, Amor, Kan’on, Pariz, Xiv va Yobus
xalqlari yashashardi. Isroil xalqi mag‘lub qilgan shohlar quyidagilardir:

9 Yerixo shohi,
Baytilning yonidagi Ay shohi,
10 Quddus shohi,
Xevron shohi,
11 Yarmut shohi,
Laxish shohi,
12 Eglon shohi,
Gezer shohi,
13 Davir shohi,
Geder shohi,
14 Xo‘rmax shohi,
Arod shohi,
15 Libna shohi,
Adullam shohi,
16 Makkedo shohi,
Baytil shohi,
17 Tappux shohi,
Xafer shohi,
18 Ofoq shohi,
Sharon shohi,
19 Madon shohi,
Xazor shohi,
20 Shimron–Maron shohi,
Axshof shohi,
21 Tanax shohi,
Magido‘ shohi,
22 Kedesh shohi,
Karmildagi Yoxnayom shohi,
23 Nafo‘t–Do‘rdagi* Do‘r shohi,
Gilgaldagi* Go‘yim shohi,
24 Tirza shohi.

Isroil xalqi hammasi bo‘lib o‘ttiz bitta shohni mag‘lub qildi.

13–BOB

Isroil xalqi hali bosib olmagan yerlar

1 Yillar o‘tib, Yoshua ancha keksayib qolgan paytda, Egamiz unga shunday dedi: “Sen qariding, yoshing ham o‘tib qoldi, lekin Men sizlarga bergan yurtning ko‘p joylari hali bosib olinmagan. 2 Isroil xalqi hali quyidagi yerlarni egallamagan: butun Filist va Geshir xalqining yerlari, 3 ya’ni Misrning sharqiy chegarasidagi Shixor irmog‘idan* shimoldagi Exron chegaralarigacha bo‘lgan yerlar. Hozir bu yerlar Kan’on xalqiga tegishli. U yerlarda Filist xalqining beshta hukmdori yashaydi. Ular quyidagi shaharlarda hukmronlik qiladi: G‘azo, Ashdod, Ashqalon, Gat va Exron. Janubdagi Avim xalqining*

yerlari ham hali bosib olinmagan. 4 Shimolda esa Isroil xalqi hali Kan’on xalqining
barcha yerlarini bosib olmagan. Bu yerlar Sidon xalqiga tegishli bo‘lgan Merax shahrini
o‘z ichiga olib, shimol tomonga, Amor xalqi yerlarining chegarasidagi Ofoq* degan
joygacha cho‘ziladi. 5 Isroil xalqi yana Gabolliklarning* yerlarini, Lubnon tog‘li
yerlarining sharq tomonini — Xermon tog‘ining etagidagi Baal–Gaddan Levo–
Xomatgacha* bo‘lgan joylarni qo‘lga kiritmagan. 6 Ular Lubnondan Misrafo‘t–
Mayimgacha bo‘lgan qirlarning aholisini — barcha Sidonliklarni ham hali mag‘lub
qilmagan. Men O‘zim mana shu xalqlarni bu yurtdan, Isroil xalqining oldidan
haydayman. Men senga buyurganimday, mana shu yerlarni albatta Isroil xalqiga mulk
qilib bergin. 7 Xullas, mana shu yerlarni qolgan to‘qqizta qabilaga va Manashe
qabilasining yarmiga* mulk qilib bo‘lib bergin.”

Iordan daryosining sharqidagi yerlar

8 Ruben, Gad qabilalari va Manashe qabilasining boshqa yarmi Iordan daryosining
sharqida o‘z ulushlarini olib bo‘lgan edilar. Ularga bu yerlarni Egamizning quli Muso
bergan edi. 9 Ularning hududi janubdagi Arnon soyligining chetida joylashgan Aror
shahridan tortib, soylikdagi* shahargacha cho‘zilib, Midavodan Dibongacha bo‘lgan
butun yassi tepalikni o‘z ichiga oladi. 10 Bu hudud Xashbon shahrida hukmronlik qilgan
Amor xalqining shohi Sixo‘n qo‘li ostida bo‘lgan hamma shaharlarni, Ommon xalqining
chegarasigacha bo‘lgan yerlarni o‘z ichiga olardi. 11-12 Bulardan tashqari, Gashur va
Maxo xalqlarining yerlari, shuningdek, shoh O‘gning butun shohligi, chunonchi, Gilad
o‘lkasi, shimoldagi butun Xermon tog‘i va sharqdagi Salkogacha bo‘lgan butun Bashan
o‘sha hududga kirar edi. Shoh O‘g Rafa xalqining* eng oxirgi avlodi bo‘lib, Bashan
o‘lkasining Ashtaro‘t va Edrey shaharlarida hukmronlik qilgan edi. Muso o‘sha yerlarni
bosib olib, xalqlarini haydab chiqargan edi. 13 Lekin Isroil xalqi Gashur va Maxo
xalqlarini haydab chiqarmadi, ular bugungacha Isroil xalqi orasida yashaydilar.
14 Faqatgina Levi qabilasiga Muso ulush qilib yer bermadi. Egamiz aytganday,
qurbongohda Isroil xalqining Xudosi — Egamizga atab kuydiriladigan qurbonliklar Levi
qabilasining ulushidir*.

Ruben qabilasining hududi

15 Muso Ruben qabilasiga urug‘lari bo‘yicha ulush bergan edi. 16 Ularning hududi
janubdagi Arnon soyligining chetida joylashgan Aror shahridan tortib, soylikdagi
shahargacha cho‘zilib, Midavo atrofidagi butun yassi tepalikni o‘z ichiga olardi. 17 Mana
shu hudud Xashbon shahrini va yassi tepalikda joylashgan quyidagi hamma shaharlarni
o‘z ichiga olar edi: Dibon, Bomo‘t–Baal va Bayt–Baal–Miyon, 18 Yaxaz, Kadamo‘t, Mifat,
19 Xiratayim, Sivmo va Iordan vodiysida joylashgan qirning ustidagi Zaret–Xashaxar,
20 Bayt–Piyor, Fisgax tog‘ tizmasining yon bag‘irlari, Bayt–Yashimo‘t shaharlari. 21 Ruben
qabilasining yerlari yassi tepalik ustidagi barcha shaharlar, Xashbonda hukmronlik
qilgan Amor xalqining shohi Sixo‘nning butun shohligini o‘z ichiga olardi. Muso Sixo‘nni
va u bilan ittifoq tuzgan Midiyon hukmdorlarini mag‘lub qilgandi. Ularning ismlari Evi,
Rahem, Zur, Xur va Raba edi. 22 Isroil xalqi yana Bavo‘r o‘g‘li Balomni* ham qilichdan
o‘tkazgan edi. U folbinlik bilan shug‘ullanar edi. 23 Ruben qabilasi hududining g‘arbiy
chegarasi Iordan daryosi va uning qirg‘oqlari edi. Mana shu yerlar Ruben qabilasiga
mulk qilib berilgan edi.

Gad qabilasining hududi

24 Muso Gad qabilasiga ham urug‘lari bo‘yicha ulush berdi. 25 Yazir shahri, Gilad
o‘lkasidagi hamma shaharlar, Rabba shahrining* sharqidagi Aror shahrigacha* bo‘lgan
Ommonlar yerining yarmi ularning hududiga kirar edi. 26 Ularning yeri yana janubdagi
Xashbon shahridan shimol tomondagi Ramat–Mispi va Batonim shaharlarigacha,
shuningdek, shimoldagi Moxanayimdan Debirgacha cho‘zilgan edi. 27 Gad qabilasining
yeri Iordan vodiysida Bayt–Xaram, Bayt–Nimro, Suxot, Zofun shaharlarini hamda
Xashbon hukmdori bo‘lgan Sixo‘n shohining qolgan shohligini ham o‘z ichiga olar edi. Bu
hududning g‘arbiy chegarasi Iordan daryosi bo‘lib, shimoldagi Jalila ko‘ligacha*
cho‘zilgan edi. 28 Mana shu hududdagi shaharlar va atroflaridagi qishloqlar Gad
qabilasiga mulk qilib berilgan edi.

Iordan sharqidagi Manashe qabilasining yarmiga berilgan yerlar

29 Muso Manashe qabilasining yarmiga ham urug‘lari bo‘yicha ulush bergan edi.
30 Ularning hududi Moxanayim shahridan shimolga cho‘zilib, butun Bashan o‘lkasini va
Yovir bosib olgan oltmishta shaharni o‘z ichiga olar edi. Bashan shohi O‘g mana shu
joylarda hukmronlik qilgan edi. 31 Gilad o‘lkasining yarmi, Bashandagi O‘g shohligining
poytaxt shaharlari Ashtaro‘t va Edrey ham ularning hududiga kirar edi. Bu yerlar
Manashe o‘g‘li Moxirdan kelib chiqqan naslning yarmiga berilgan edi.
32 Iordanning sharqida, Mo‘ab tekisligida, Yerixoning ro‘parasida Muso bo‘lib bergan
ulushlar mana shulardir. 33 Lekin Levi qabilasiga Muso ulush qilib yer bermagan edi.
Isroil xalqining Xudosi — Egamiz ularga: “Men O‘zim sizlarning ulushingiz bo‘laman”,
deb va’da bergan edi*.

14–BOB

Iordan daryosining g‘arbidagi yerlar taqsimlanadi

1 Iordan daryosining g‘arbidagi Kan’on yurti yerlaridan Isroil xalqining qolgan
qabilalari mulk oldilar. Ruhoniy Elazar*, Nun o‘g‘li Yoshua va Isroil qabilalarining
boshliqlari bu yerlarni qabilalarga bo‘lib berishdi. 2 Iordan daryosining g‘arbida mana
shu to‘qqiz qabila va bitta qabila yarmining ulushlari, Musoga Egamiz buyurganday,
qur’a tashlab belgilandi*. 3-4 Iordanning sharqida esa Muso ikki qabilaga va bitta
qabilaning yarmiga ulush berib bo‘lgandi. Yusufning ikkala o‘g‘li — Manashe va
Efrayimdan ikki qabila kelib chiqqan edi. Ammo Isroil qabilalari orasida Levi qabilasi
hech qanday ulush olmadi*. Ularga faqat o‘zlari yashashi uchun shaharlar va qo‘y–
mollarini boqish uchun shaharlar atrofidagi yaylovlar berildi. 5 Shunday qilib, Egamiz
Musoga buyurganday, Isroil xalqi yerlarni bo‘lib oldilar.

Xevron Xolibga beriladi

6 Bir kuni Yahudo qabilasidan bir necha kishi Yoshuaning oldiga keldi. Isroil
xalqining hammasi hali ham Gilgaldagi qarorgohda edi. Xanaz urug‘idan bo‘lgan Yafunax
o‘g‘li Xolib* o‘sha kishilar orasida edi. U Yoshuaga shunday dedi:
— Kadesh–Barna shahrida bo‘lganimizda, Xudoning odami Muso siz va men
haqimizda nima deganini bilasiz. Muso Egamiz nomidan gapirgan edi. 7 Egamizning quli
Muso meni Kadesh–Barnadan mana shu yerlarni tekshirib kelish uchun yuborganda
qirq yoshda edim. Men qaytib kelib, unga bor haqiqatni aytgan edim. 8 Men bilan borib

kelganlar xalqimizni vahimaga solgan boʻlsa ham, men Egam Xudoga sodiq qoldim.
9 Oʻsha kuni Muso qasam ichib menga shunday degan edi*: “Kan’on yurtida qadaming
yetgan yerlar senga va avlodingga abadiy mulk qilib beriladi, chunki sen Egam Xudoga
sodiq qolding.” 10 Mana koʻrib turganingizdek, Egamiz Musoga shunday deb gapirganiga
qirq besh yil boʻldi. Oʻsha paytda Isroil xalqi sahroda yurgan edi. Egam Oʻzi aytganday
oʻshandan beri jonimni saqlab kelyapti. Mana hozir sakson besh yoshdaman. 11 Muso
meni yuborgan kunda qanday baquvvat boʻlgan boʻlsam, hozir ham shundayman.
Haligacha jangga ham, qolgan barcha ishlarga ham quvvatim yetadi. 12 Endi Egamiz
oʻsha kuni va’da qilgan qirlarni* menga bering. Oʻsha kuni aygʻoqchilarning: “Onoq
avlodi* u yerda oʻzlarining katta, mustahkam shaharlarida yasharkan” degan gaplarini
oʻzingiz eshitdingiz. Ammo Egamiz men bilan birga boʻlsa, Egamizning Oʻzi aytganday,
men ularni bu yurtdan haydab chiqaraman.
13 Shundan keyin Yoshua Xolibni duo qilib, Xevron shahrini* unga mulk qilib berdi.
14 Shunday qilib, Xolib Isroil xalqining Xudosiga — Egamizga sodiq qolgani uchun
Xevron shahri uning va avlodining mulki boʻlib qoldi. 15 Xevronning eski nomi Xirat–
Arba* edi. Arba Onoq avlodi orasida eng mashhur kishi boʻlgan edi.
Endi yurtda tinchlik barqaror boʻldi.

15–BOB

Yahudo qabilasining hududi

1 Yahudo qabilasining urugʻlariga tushgan ulush yurtning janub tomonida edi.
Ularning janubdagi yerlari Edom yurtining chegarasi boʻlgan Zin choʻligacha yetdi.
2 Ularning janubiy chegarasi Oʻlik dengizning* janubiy qirgʻogʻidan boshlanadi.
3 Chegara Chayonlar dovonidan* oʻtib, janub tomonga, Zin choʻli tomon choʻziladi.
Kadesh–Barna shahrining janub tomonidan oʻtib, Xazron shahrigacha boradi. Xazrondan
oʻtgandan keyin Adar shahrigacha borib, Karxa shahri tomonga buriladi. 4 Bu chegara
Ozmon shahrigacha borib, Misr chegarasidagi irmoqdan* ham oʻtadi–da, Oʻrta yer
dengizining yonida tugaydi. Yahudo qabilasining janubiy chegarasi ana shunday boʻladi.
5 Ularning sharqiy chegarasi Oʻlik dengizdir. Bu chegara shimoldagi Iordan daryosi
Oʻlik dengizga quyiladigan joygacha choʻziladi. Mana shu joydan shimoliy chegara
boshlanadi.
6 Shimoliy chegara Oʻlik dengizning gʻarbidagi Bayt–Xoʻglaxgacha choʻzilib, Bayt–
Arabaning shimolidan oʻtadi–da, Ruben oʻgʻli Boʻxanning nomi bilan atalgan tosh turgan
joygacha boradi. 7 Keyin chegara Oxor soyligidan Davirgacha* borib, shimolga — Gilgal*
tomonga buriladi. Gilgal soylikning janubida boʻlgan Adum dovonining roʻparasida edi.
Chegara En–Shamash bulogʻidan oʻtib, En–Roʻgʻolga boradi. 8 Keyin Xinnum soyligining
tepasidan kesib oʻtib, Yobus xalqiga qarashli boʻlgan tepalikning, ya’ni Quddusning
janubiy yon bagʻridan oʻtadi. Chegara u yerdan Xinnum soyligining gʻarbidagi qirning
tepasiga — Rafa vodiysining shimoliy chetigacha boradi. 9 Chegara togʻning tepasidan
Naftuva buloqlari tomon choʻzilib, Efroʻn togʻining shaharlarigacha boradi, keyin esa
Baalax tomonga buriladi. Bu shahar hozirgi paytda* Xirat–Yoʻrim deb ataladi.
10 Shundan keyin bu shimoliy chegara Baalaxning gʻarb tomonini aylanib oʻtib, Seir
togʻlarigacha* boradi. Keyin Yoʻrim togʻining shimoliy yon bagʻridan oʻtadi. Xisalon
shahri shu yerda joylashgan. U yerdan chegara Bayt–Shamash shahrigacha* boradi va

Timnax shahridan oʻtadi. 11 Keyin chegara Exron shahrining shimolidagi tepalikning yon
bagʻridan oʻtib, Shikkaron shahri tomonga buriladi. Keyin Baalax togʻining yonidan oʻtib,
Yobnail shahriga boradi. Shimoliy chegara Oʻrta yer dengizining oldida tugaydi.
12 Oʻrta yer dengizining* qirgʻogʻi gʻarbiy chegarani tashkil qiladi.
Mana shu chegaralar hududida Yahudo qabilasining urugʻlari yashaydi.

Xevron va Davir shaharlarini Xolib magʻlub qiladi

13 Egamiz buyurganday, Yoshua Yafunax oʻgʻli Xolibga Yahudo qabilasining
hududidan ulush berdi. Bu ulush Xirat–Arba* shahri edi. Arba Onoq avlodining*
bobokaloni edi. Hozirgi paytda* Xirat–Arba shahri Xevron deb ataladi. 14 Xolib u yerdan
Onoq avlodini — Sheshay, Oximan va Talmay urugʻlarini quvib chiqardi. 15 Yahudo
qabilasining odamlari u yerdan Davir shahriga* hujum qilish uchun yoʻlga tushishdi.
Davirning eski nomi Xirat–Safar edi. 16 Shunda Xolib: “Xirat–Safarga hujum qilib, qoʻlga
kiritgan kishiga qizim Axsani beraman”, — dedi. 17 Oʻtniyol shaharni qoʻlga kiritdi, Xolib
esa unga qizi Axsani uzatdi. Oʻtniyol Xolibning Xanaz ismli ukasining oʻgʻli edi. 18 Toʻydan
keyin qiz Oʻtniyolga: “Keling, otamdan* bir dala soʻrab olaylik”, deb turib oldi. Xolib
eshakdan tushayotgan qiziga: “Ha, qizim, biron–bir istaging bormi?” — deb soʻradi.
19 “Menga bir sovgʻa qilsangiz, — dedi Axsa. — Siz menga Nagav choʻlidagi* yerni
berdingiz, endi suv buloqlarini ham hadya eting.” Shunday qilib, Xolib unga tepadagi va
pastdagi buloqlarni* berdi.

Yahudo shaharlari

20 Quyida aytib oʻtilgan yerlarni Yahudo qabilasi ulush qilib oldi. 21 Bu hududning eng
janubidagi — Edom yurti chegarasidagi shaharlarning nomlari quyidagicha edi: Kabzil,
Eder, Yogʻur, 22 Xino, Dimona, Adad, 23 Kedesh, Xazor, Yitnon, 24 Zif, Talim, Boloʻt,
25 Xazor–Xadatto, Xariyoʻt–Xazron, ya’ni Xazor, 26 Emom, Shama, Moʻlodax, 27 Xazor–
Gaddax, Xashmon, Bayt–Palat, 28 Xazor–Shuvol, Bersheba, Bizyoʻtayox, 29 Baalax, Iyim,
Ezam, 30 Eltoʻlad, Xasil, Xoʻrmax, 31 Zixlax, Madmanno, Sansanno, 32 Laboyoʻt, Shilxim,
Oyin, Rimmon — hammasi boʻlib yigirma toʻqqizta shahar va ularning atrofidagi
qishloqlar.
33 Qir etaklarining shimolidagi shaharlarning nomi esa quyidagicha edi: Eshtoyoʻl,
Zorox, Ashnah, 34 Zonoʻvax, En–Xannim, Tappux, Enom, 35 Yarmut, Adullam, Soʻxu,
Ozikah, 36 Sharayim, Aditayim, Gadera (yoki Gaderatayim) — hammasi boʻlib oʻn toʻrtta
shahar va ularning atrofidagi qishloqlar.
37 Qir etaklarining janubida quyidagi shaharlar bor edi: Zinon, Hadasha, Migdal–Gad,
38 Dilan, Mispax, Yoxtal, 39 Laxish, Bozxat, Eglon, 40 Kabboʻn, Laxmos, Xitlish, 41 Gaderoʻt,
Bayt–Doʻgʻon, Namax, Makkedo — hammasi boʻlib oʻn oltita shahar va ularning
atrofidagi qishloqlar.
42 Qir etaklarining markaziy qismidagi shaharlar quyidagilar edi: Libna, Eter, Oshon,
43 Yiftox, Ashnah, Naziv, 44 Keylax, Axsib, Morisho — hammasi boʻlib toʻqqizta shahar va
ularning atrofidagi qishloqlar.
45 Yahudo qabilasining hududi Exronning barcha shaharlari va ularning atrofidagi
qishloqlarni oʻz ichiga olar edi. 46 Chegara Exrondan gʻarbga, Oʻrta yer dengizi tomon
choʻzilib, Ashdodning yonida boʻlgan barcha shaharlar va ularning atrofidagi
qishloqlarni oʻz ichiga olar edi. 47 Ularning hududi Ashdod va uning shaharlariyu
qishloqlarini, Gʻazo va u yerdan Misr chegarasidagi irmoqqacha* boʻlgan joylardagi

shaharlar va qishloqlarni, O‘rta yer dengizining qirg‘og‘i bo‘yidagi shaharlarni o‘z ichiga olar edi.

48 Yahudo qabilasi qirlarda quyidagi shaharlarni ulush qilib oldi: Shomir, Yatir, So‘xu,
49 Danno, Xirat–Sanno, ya’ni Davir, 50 Onov, Eshtamo‘va*, Onim, 51 Go‘shen, Xo‘lun va
Gilox — hammasi bo‘lib o‘n bitta shahar va ularning atrofidagi qishloqlar.

52 Qirlardagi quyidagi shaharlar Yahudo qabilasining hududiga kirar edi: Arab,
Dumax, Ishan, 53 Yonum, Bayt–Tappux, Ofoqa, 54 Xumtax, Xirat–Arba, ya’ni Xevron va
Zior — hammasi bo‘lib to‘qqizta shahar va ularning atrofidagi qishloqlar.

55 Yana qirlarda quyidagi shaharlar Yahudo qabilasining ulushi bo‘ldi: Moyun,
Karmil, Zif, Yutto, 56 Yizril, Yoxdayom, Zono‘vax, 57 Qayin, Givo va Timnax — hammasi
bo‘lib o‘nta shahar va ularning atrofidagi qishloqlar.

58 Qirlardagi mana bu shaharlar ham o‘sha hududga kirardi: Xalxul, Bayt–Zur, Gado‘r,
59 Marot, Bayt–Ano‘t va Eltaxo‘n — hammasi bo‘lib oltita shahar va ularning atrofidagi
qishloqlar.

60 Xirat–Baal, ya’ni Xirat–Yo‘rim va Rabba — qirlardagi mana shu ikki shahar va
ularning atrofidagi qishloqlar ham Yahudo qabilasining ulushi bo‘ldi.

61 O‘lik dengiz bo‘yidagi adirlarda joylashgan quyidagi shaharlar ham Yahudo
qabilasiga tegishli bo‘ldi: Bayt–Araba, Middin, Saxoxo, 62 Nivshon, Tuz shahri va En–Gedi
— hammasi bo‘lib oltita shahar va ularning atrofidagi qishloqlar.

63 Ammo Yahudo qabilasi Yobus xalqini Quddusdan haydab chiqara olmadi*.
Bugungacha* Yobus xalqi Yahudo xalqi bilan birga Quddusda yashaydi.

16–BOB

Yusuf avlodining ulushi

1 Yusuf avlodlariga* berilgan ulushning janubiy chegarasi Yerixo shahrining yonidagi
Iordan daryosidan, Yerixo bulog‘ining sharqidagi joydan boshlanadi. Keyin chegara
Yerixoning oldidan o‘tib, shimoli–g‘arbdagi Yahudo adirlari orqali qirlardagi Baytil
shahrigacha cho‘ziladi. 2 Keyin Baytil, ya’ni Luzdan ham o‘tib*, Orux xalqiga tegishli
bo‘lgan Otro‘t–Adargacha* boradi. 3 Chegara u yerdan g‘arbdagi Yaflet avlodining
yerigacha cho‘zilib, Pastki Bayt–Xo‘rongacha boradi. Keyin chegara Gezer shahrigacha
borib, O‘rta yer dengizining oldida tugaydi.

4 Yusuf avlodlari bo‘lgan Manashe va Efrayim qabilalari mana shu yerlarni ulush
qilib oldilar.

Efrayim qabilasiga berilgan yerlar

5 Efrayim qabilasining urug‘lariga quyidagi yerlar berildi: bu yerlarning janubiy
chegarasi Otro‘t–Adarda boshlanadi–da, g‘arb tomonga, Tepadagi Bayt–Xo‘rongacha
cho‘zilib, 6-7 O‘rta yer dengizining oldida tugaydi. Sharqiy chegarasi Mixmatitdan janub
tomonga boradi, Tanat–Shilo‘, Yonox, Otaro‘t, Naro shaharlaridan o‘tib, Iordan
daryosining Yerixoga yaqin bo‘lgan joyida tugaydi. 8 Shimoliy chegarasi esa Tappuxdan
g‘arbga boradi. Keyin Kanax soyligi bo‘ylab cho‘zilib, O‘rta yer dengizida tugaydi. Mana
shu yerlarni Efrayim qabilasi ulush qilib oldi.

9 Efrayim qabilasiga yana Manashe hududida joylashgan bir nechta shaharlar va
ularning atrofidagi qishloqlar ham berildi. 10 Ammo Efrayim qabilasi Gezerda
yashayotgan Kan’on xalqini quvib chiqarmadi. Bu xalq bugungi kungacha* Efrayim

qabilasi orasida yashaydi, lekin ular qarol bo‘lib xizmat qilishga majbur qilinganlar.

17–BOB

Iordan g‘arbidagi Manashe qabilasining yarmiga berilgan yerlar

1 Keyin Manashe qabilasiga ulush berildi. Manashe Yusufning to‘ng‘ichi edi. Moxir
Manashening to‘ng‘ichi bo‘lib, Giladning otasi edi. Moxir botir jangchi bo‘lgani uchun,
Muso unga Iordanning sharqidagi Gilad va Bashan o‘lkalarini bergan edi. 2 Iordanning
g‘arbida Manashe qabilasining qolganiga ulush berildi. Manashe o‘g‘illari Abuazar,
Xalek, Osriyol, Shakam, Xafer va Shamido urug‘larining hammasiga yerlar berildi.
3 Manashening nabirasi Giladning Xafer degan o‘g‘li bor edi. Xaferning esa Zalofxod
degan o‘g‘li bor edi. Zalofxodning o‘g‘illari yo‘q, faqatgina qizlari bor edi. Qizlarining
ismlari Maxlo, Nuvah, Xo‘glax, Milxo va Tirza edi. 4 Shu ayollar ruhoniy Elazar*, Yoshua
va oqsoqollarning oldiga kelib, shunday deyishdi: “Egamizning O‘zi bizga ham,
amakilarimiz qatori, ulush berishni Musoga amr qilgan.”* Yoshua Egamizga itoat etib,
qizlarga ham amakilari qatori ulush berdi. 5 Natijada Iordanning sharqidagi Gilad va
Bashan o‘lkalaridan tashqari, Manashe qabilasi Iordanning g‘arbida yana o‘n bo‘lak yer
oldi. 6 Chunki Manashe avlodining ayollari ham erkaklar qatori ulush olishdi. Gilad
yerini esa Yoshua Manashe qabilasining qolganlariga taqsimlab berdi.
7 Iordan daryosining g‘arbidagi Manashe qabilasi yerlarining shimoliy chegarasi
Osher qabilasi hududining chegarasi bilan tutashgan edi. Janubiy chegarasi esa Mixmatit
shahrigacha borib, Tappux bulog‘i* atrofida yashaydiganlarning yerlarigacha cho‘zilgan
edi. Mixmatit shahri Shakam shahrining sharqida edi. 8 Tappux shahri Manashe va
Efrayim qabilalarining chegarasida joylashgan edi. Tappuxning atrofidagi yerlar
Manashe qabilasiga tegishli bo‘lsa ham, shaharning o‘zi Efrayim qabilasiga tegishli edi.
9 Manashe hududining janubiy chegarasi Tappux shahridan, Kanax soyligi bo‘ylab, O‘rta
yer dengizigacha cho‘ziladi. Kanax soyligining qirg‘og‘idagi bir nechta shahar Manashe
qabilasining hududida bo‘lishiga qaramay Efrayim qabilasiga tegishli edi. 10 O‘sha
soylikning janubidagi yerlar Efrayim qabilasiniki, shimolidagi yerlar esa Manashe
qabilasiniki edi. O‘rta yer dengizining qirg‘og‘i Manashe hududining g‘arbiy chegarasi
edi. Bu hudud shimol tomonda Osher qabilasining hududigacha, sharq tomonda esa
Issaxor qabilasining hududigacha cho‘zilgan edi.
11 Issaxor va Osher qabilalarining hududlarida joylashgan quyidagi shaharlar va
atrofidagi qishloqlar Manashe qabilasiga berilgan edi: Bayt–Shan, Yiblayom, Do‘r, ya’ni
Nafo‘t–Do‘r, En–Do‘r, Tanax va Magido‘. 12 Lekin Manashe qabilasi bu shaharlarni qo‘lga
kirita olmadi. Kan’on xalqlari o‘sha joylarda yashashda davom etaverdi. 13 Birmuncha
vaqt o‘tgandan keyin Isroil xalqi yanada kuchaydi va Kan’on xalqlarini qarol bo‘lib
xizmat qilishga majbur qildi. Ammo ularni yurtdan butunlay quvib chiqarmadi.

Efrayim va Manashe qabilalari kattaroq ulushni so‘rab borishadi

14 Bir kun Yusuf avlodlari* kelib, Yoshuadan so‘rashdi:
— Egamiz bizni barakali qilib, juda ham ko‘paytirdi. Nima uchun bizga faqatgina bir
ulush yer berdingiz?
15 Yoshua ularga shunday deb javob berdi:
— Agar Efrayim qirlari sizlarga kichiklik qilayotgan bo‘lsa, boringlar, Pariz va Rafa*
xalqlarining o‘rmonlaridagi daraxtlarni kesib, o‘zingizga joy tozalab olinglar.

16 Ular shunday dedilar:
— Biz aytganingizday qilsak ham, baribir, u joy bizga torlik qiladi. Yizril vodiysiga borib ham, u yerda yashay olmaymiz. Nega desangiz, Bayt–Shan shahri va uning atrofidagi qishloqlarda hamda Yizril vodiysining boshqa joylarida yashaydigan Kan'on xalqi bizdan ancha kuchli, ularning temirdan yasalgan jang aravalari* bor.
17 Yoshua Yusufning avlodlari bo'lgan Efrayim va Manashe qabilalariga shunday dedi:
— Sizlar juda ko'pchiliksizlar, kuchingiz ham ko'p. Nafaqat bir ulush yer, 18 balki qirlar ham sizlarniki bo'ladi. U yerlar o'rmon bo'lsa ham, daraxtlarini kesib, tozalanglar. U joylar boshidan oxirigacha sizlarniki bo'ladi. Kan'on xalqlarining temir jang aravalariyu katta kuchi bo'lishiga qaramay, sizlar ularni u yerdan haydab chiqarasizlar.

18–BOB

Yoshua qolgan yerlarni taqsimlaydi

1 Isroil xalqi yurtni bosib olgandan keyin, butun Isroil jamoasi Shilo' shahrida* yig'ildi. Ular o'sha yerda Uchrashuv chodirini tikdilar.
2 Isroil xalqining orasida hali ulush olmagan yettita qabila qolgan edi. 3 Yoshua Isroil xalqiga shunday dedi: "Ota–bobolaringizning Xudosi — Egamiz sizlarga yurtni bergan, qachongacha u yurtga butunlay joylashishni orqaga surasizlar?! 4 Har bir qabiladan uch kishini tanlanglar. Men ularni butun yurtni kezib chiqish uchun yuboraman. Ular o'z qabilalarining ulushi bo'yicha, o'sha yerni tasvirlab yozib kelishadi. 5 Janubdagi Yahudo qabilasining hududi va shimoldagi Yusuf avlodlarining* hududlaridan tashqari, yurtning qolgan qismini yettiga bo'lasizlar. 6 Keyin shularni yozib, mening oldimga olib kelinglar. Men Egamiz Xudo oldida sizlar uchun qur'a tashlayman*. 7 Sizlarning orangizda Levi qabilasiga ulush bermayman. Egamizga ruhoniy bo'lib xizmat qilish ularning ulushidir. Gad, Ruben qabilalari va Manashe qabilasining yarmi Iordanning sharq tomonida o'z ulushlarini olib bo'lganlar. Egamizning quli Muso o'sha yerlarni ularga bergan."
8 Shunday qilib, Yoshua yerning xaritasini tuzib kelishni buyurgan kishilar yo'lga tushdilar. Ular ketmasdan oldin, Yoshua ularga shunday deb tayinlagan edi: "Butun yerni kezib, uning xaritasini tuzib kelganingizdan keyin, men Shilo'da, Egamiz oldida sizlar uchun qur'a tashlayman." 9 U kishilar borib, yerni yetti qismga bo'ldilar. Butun yurtning xaritasini tuzib, shaharlarini ro'yxatga oldilar. Keyin Yoshuaning oldiga, Shilo'dagi qarorgohga qaytib keldilar. 10 Yoshua Shilo'da, Egamiz oldida ular uchun qur'a tashlab, o'sha yerlarni Isroil xalqiga bo'lib berdi. Qur'a bo'yicha har bir qabilaga bir ulushdan yer berdi.

Benyamin qabilasining ulushi

11 Qur'a tashlanganda, Benyamin qabilasiga Yahudo qabilasi va Yusuf avlodlari* hududlarining orasidagi yerlar ulush bo'lib tushdi.
12 Benyamin hududining shimoliy chegarasi sharq tomonda Iordan daryosidan boshlanadi, keyin Yerixo qirining yon bag'ridan shimol tomonga boradi. Qirlar bo'ylab g'arb tomonga o'tib, Bayt–Obun atrofidagi sahroga boradi. 13 U yerdan chegara Luz, ya'ni Baytil tomonga borib, Luzning janubidagi qir bo'ylab cho'ziladi. Keyin chegara Otro't–Adar shahriga borib, u yerdan Pastki Bayt–Xo'ron shahrining janubidagi qirgacha boradi.

14 U yerdan g‘arbiy chegara boshlanib, Bayt–Xo‘ron qarshisidagi qirning g‘arb tomoni
bo‘ylab janub tomonga cho‘ziladi va Xirat–Baal, ya’ni Xirat–Yo‘rim qishlog‘ida tugaydi.
Bu qishloq Yahudo qabilasiga tegishli. G‘arbiy chegara mana shudir.
15 G‘arbda janubiy chegara Xirat–Yo‘rimning chetidan boshlanib, Naftuva
buloqlarigacha boradi. 16 Keyin chegara Rafa vodiysining shimolidagi tog‘ etagiga boradi.
Xinnum soyligi mana shu yerdan boshlanadi. Chegara janub tomonga davom etib,
Xinnum soyligi bo‘ylab Yobusning* janubidagi qir yon bag‘riga boradi. U yerdan esa En–
Ro‘g‘ol tomonga qarab davom etadi. 17 Chegara u yerdan shimolga, En–Shamash
tomonga buriladi va Adum dovonining qarshisidagi Gelilo‘tga boradi. Keyin Ruben o‘g‘li
Bo‘xan nomi bilan atalgan toshning yonidan o‘tadi. 18 Keyin Iordan vodiysining*
yonidagi qir yon bag‘rining shimol tomonidan o‘tib, vodiyni ham kesib o‘tadi. 19 U
yerdan chegara Bayt–Xo‘glax qirining shimol tomoniga o‘tib, Iordan daryosi O‘lik
dengizga* quyiladigan joyda tugaydi. Bu Benyamin qabilasi hududining janubiy
chegarasidir.
20 U yerning sharqiy chegarasi Iordan daryosidir.
Benyamin qabilasiga ulush qilib berilgan yerlarning chegaralari mana shular edi.
21 Quyidagi shaharlar Benyamin qabilasiga berildi: Yerixo, Bayt–Xo‘glax, Emix–Qaziz,
22 Bayt–Araba, Zamorayim, Baytil, 23 Avim, Poro, O‘fra, 24 Xafar–Ommonax, Ofnax va
Gebo — hammasi bo‘lib o‘n ikkita shahar va ularning atrofidagi qishloqlar. 25 Quyidagi
shaharlar ham Benyamin qabilasiga berildi: Givon, Rama, Baro‘t, 26 Mispax, Xafira,
Mo‘zox, 27 Rahem, Yirpayel, Taralo, 28 Zila, Elef, Yobus, ya’ni Quddus, Givo va Xirat–
Yo‘rim* — hammasi bo‘lib o‘n to‘rtta shahar va ularning atrofidagi qishloqlar.
Yoshua mana shu yerlarni Benyamin qabilasiga ulush qilib berdi.

19–BOB

Shimo‘n qabilasining ulushi

1 Qur’a bo‘yicha* ikkinchi bo‘lib Shimo‘n qabilasi ulush oldi. Shimo‘n qabilasiga ulush
qilib berilgan yerlarning atrofi Yahudo qabilasining hududi bilan o‘ralgan edi. 2 Shimo‘n
qabilasiga: Bersheba (ya’ni Sheba)*, Mo‘lodax, 3 Xazor–Shuvol, Bala, Ezam, 4 Elto‘lad,
Batul, Xo‘rmax, 5 Zixlax, Bayt–Markobot, Xazor–Susa, 6 Bayt–Laboyo‘t va Shoruxan —
hammasi bo‘lib o‘n uchta shahar va ularning atrofidagi qishloqlar berildi.
7 Quyidagi shaharlar ham Shimo‘n qabilasiga tegishli edi: Oyin, Rimmon, Eter va
Oshon — to‘rtta shahar va ularning atrofidagi qishloqlar. 8 Shimo‘n qabilasining hududi
yana janubdagi Baalat–Berni, ya’ni Nagav cho‘lidagi* Ramagacha bo‘lgan yerlardagi
barcha shaharlarni va ularning atrofidagi qishloqlarni o‘z ichiga olar edi. 9 Yoshua
Yahudo qabilasiga bergan ulush ular uchun keragidan ham ortiq edi. Shuning uchun
ularning hududidan bir bo‘lagini olib, Shimo‘n qabilasiga ulush qilib berdi.

Zabulun qabilasining ulushi

10 Qur’a bo‘yicha uchinchi bo‘lib Zabulun qabilasi ulush oldi. Ularga tekkan
hududning chegarasi Sorid shahridan boshlanib, 11 g‘arb tomonga boradi va Maralo
shahridan o‘tadi. Keyin Dabbeshet shahrining yonidan o‘tib, Yoxnayom shahrining
sharqidagi soylikkacha yetadi. 12 Sorid shahrining sharq tomonidan chegara Xislo‘t–
Tovur shahrining chegarasigacha cho‘ziladi. Keyin Dovarat shahrigacha borib, Yofiya
shahrigacha davom etadi. 13 Chegara yana sharq tomonga davom etib, Gat–Xafer va Et–

Kozin shaharlarigacha boradi. Keyin chegara Rimmon shahrigacha borib, u yerdan
Niyox shahri tomon buriladi*. 14 Hududning shimoliy chegarasi Xannaton shahridan
o‘tib, Yiftox–El soyligida tugaydi. 15 Zabulun qabilasining hududida hammasi bo‘lib o‘n
ikkita shahar va ularning atrofidagi qishloqlar bor edi. Kattot, Nahalil, Shimron, Yidalo
va Baytlahm* o‘sha shaharlardan ba’zilari edi.
16 Mana shu shaharlar va ularning atrofidagi qishloqlarning hammasini Zabulun
qabilasi ulush qilib oldi.

Issaxor qabilasining ulushi

17 Qur’a bo‘yicha to‘rtinchi bo‘lib Issaxor qabilasi ulush oldi. 18 Bu qabilaga ulush qilib
berilgan yerlarda quyidagi shaharlar bor edi: Yizril, Xasullo‘t, Shunam, 19 Xaforayim,
Shiyon, Anaxarat, 20 Rabbit, Xishion, Avaz, 21 Remot, En–Xannim, En–Xaddax, Bayt–
Pazez. 22 Shimoldagi bu hududning chegarasi Tovur tog‘idan boshlanib, Iordan
daryosida tugaydi. Tovur*, Shaxazimo va Bayt–Shamash* shaharlari ham mana shu
hududga kirar edi — hammasi bo‘lib o‘n oltita shahar va ularning atrofidagi qishloqlar.
23 Mana shu shaharlar va ularning atrofidagi qishloqlarni Issaxor qabilasi ulush qilib
oldi.

Osher qabilasining ulushi

24 Qur’a bo‘yicha beshinchi bo‘lib Osher qabilasi ulush oldi. 25 Ularning hududi
quyidagi shaharlarni o‘z ichiga olar edi: Xalkat, Xaliy, Beten, Axshof, 26 Alammalek, Emod
va Mishol. Hududning janubiy chegarasi O‘rta yer dengizidan boshlanib, Karmil
qirlarining etaklaridagi Shixor–Libnat soyligi bo‘ylab cho‘ziladi. 27 U yerdan chegara
sharq tomonga burilib, Bayt–Do‘g‘on shahrigacha boradi va Yiftox–El vodiysidagi
Zabulun qabilasi hududining chegarasi bilan tutashadi. Keyin sharqiy chegara shimol
tomonga burilib, Bayt–Emix va Nabiyol shahrigacha boradi. Hududning chegarasi Kavul,
28 Abdo‘n*, Rexob, Xammon, Kanax shaharlaridan o‘tib, Buyuk Sidon shahrigacha yetadi
29 va bu yerdan g‘arbga buriladi. Shu yerdan shimoliy chegara boshlanib, Ramaga*
boradi–da, mustahkam Tir shahrigacha yetadi. Keyin chegara Xo‘sax shahri tomon
burilib, O‘rta yer dengizining oldida tugaydi. Osher qabilasining hududi quyidagi
shaharlarni ham o‘z ichiga olar edi: Maxalav, Axsib*, 30 Ummo*, Ofoq va Rexob —
hammasi bo‘lib yigirma ikkita shahar va ularning atrofidagi qishloqlar.
31 Mana shu yerlarning hammasini Osher qabilasi ulush qilib oldi.

Naftali qabilasining ulushi

32 Qur’a bo‘yicha oltinchi bo‘lib Naftali qabilasi ulush oldi. 33 Naftali qabilasi
hududining janubiy chegarasi Xalef shahridan Zananim shahri yonidagi eman daraxti
yonigacha boradi. U yerdan chegara Adamiy–Naxab, Yobnail va Laxum shaharlarigacha
davom etib, Iordan daryosida tugaydi. 34 Hududning g‘arbiy chegarasi Ozno‘t–Tovur
shahridan o‘tib, Huqqoq shahrigacha boradi. Naftali qabilasining hududi janub tomonda
Zabulun qabilasining hududi bilan chegaradosh, g‘arb tomonda Osher qabilasining
hududi bilan chegaradosh. Sharqiy chegarasi esa Iordan daryosidir*. 35 Naftali
qabilasining hududidagi mustahkam shaharlar quyidagilardir: Ziddim, Zer, Xammat,
Raxat, Keneret, 36 Adamax, Rama*, Xazor, 37 Kedesh, Edrey, En–Xazor, 38 Iro‘n, Migdal–El,
Xorem, Bayt–Onot va Bayt–Shamash* — hammasi bo‘lib o‘n to‘qqizta shahar va ularning
atrofidagi qishloqlar.
39 Naftali qabilasi mana shu yerlarni ulush qilib oldi.

Dan qabilasining ulushi

40 Qur’a bo‘yicha yettinchi bo‘lib Dan qabilasi ulush oldi. 41 Ularning hududi quyidagi
shaharlardan iborat edi: Zorox, Eshtoyo‘l, Ir–Shamash, 42 Shalabbin, Oyjavlon, Yitla,
43 Elo‘n, Timnax, Exron, 44 Eltaxa, Gibiton, Baalat, 45 Yohud, Bani–Baraq, Gat–Rimmon,
46 Mejarkon, Raxxo‘n va Yaffaning qarshisidagi joylar.

47-48 Mana shu shaharlar va ularning atrofidagi qishloqlar Dan qabilasining ulushi edi. Ammo keyinchalik dushmanlar kelib, bu yerlarni bosib oldilar. Shunda Dan qabilasi shimol tomonga borib, Layish* shahriga hujum qildi*. Ular shaharni qo‘lga kiritib, butun shahar aholisini qirib tashladilar. O‘zlari esa shu shaharda joylashib, uni o‘z bobosi Dan sharafiga Dan deb atadilar.

Yoshuaning ulushi

49 Barcha yerlar Isroil qabilalariga bo‘lib berilgandan keyin, Isroil xalqi Yoshuaga
ham ulush berdi. 50 Egamiz Isroil xalqiga, Yoshua xohlagan shaharni unga beringlar, deb
amr qilgan edi. Yoshua Efrayim qirlaridagi Timnat–Serax shahrini so‘radi. Isroil xalqi
o‘sha shaharni Yoshuaga berdi. Yoshua u shaharni qaytadan qurib, o‘sha yerda
joylashdi.

51 Mana shu yerlarning hammasini ruhoniy Elazar*, Nun o‘g‘li Yoshua va qabilalar
boshliqlari Isroil qabilalariga ulush qilib berdilar. Ular bu ishlarni Shilo‘dagi* Uchrashuv
chodiriga kiraverishda, Egamizning huzurida qur’a tashlab* amalga oshirdilar. Xullas,
butun yurtni bo‘lib olish ham o‘z nihoyasiga yetdi.

20–BOB

Panoh shaharlar

1 Egamiz bir kuni Yoshuaga shunday deb aytdi:

2 — Isroil xalqiga shu gaplarni yetkazgin: “Muso orqali sizlarga buyurganimday*,
panoh shaharlarni tayinlanglar. 3 Mabodo, birortasi bexosdan odam o‘ldirib qo‘ysa,
qochib o‘sha shaharlardan biriga borsin. Qotil o‘sha shaharlarning birida panoh topib,
marhumning qasos olmoqchi bo‘lgan qarindoshlaridan* omon qoladi. 4 Shaharga yetib
borgandan keyin, qotil shahar darvozasi oldida* o‘tirgan shahar oqsoqollariga o‘z
vaziyatini tushuntirsin. Shunda uni shaharga olib kirib, uy–joy berishadi. 5 Qasoskor
qotilning orqasidan quvib kelsa, qotil qasoskorga berilmasin. Axir, qotil odamni
bexosdan o‘ldirib qo‘ygan, ularning orasida hech qanday adovat yo‘q edi. 6 Jamoa yig‘ilib,
qotilni hukm qilmaguncha, o‘sha odam panoh shaharda qolishi lozim. Qotil aybsiz deb
topilgandan keyin* esa o‘sha paytda xizmat qilayotgan oliy ruhoniyning o‘limiga qadar,
panoh shaharda yashashi kerak. Oliy ruhoniyning o‘limidan keyingina u o‘zi qochib
kelgan joyga qaytib borishi mumkin.”

7 Iordan daryosining g‘arb tomonida Isroil xalqi panoh shaharlar qilib quyidagi
shaharlarni tayinladi: Naftali qabilasiga tegishli qirlarda joylashgan Jaliladagi Kedesh
shahri, Efrayim qabilasiga tegishli qirlardagi Shakam shahri, Yahudo qabilasiga tegishli
qirlardagi Xirat–Arba, ya’ni Xevron shahri. 8 Iordan daryosining sharqida, Yerixo
shahrining qarshi tomonida esa Isroil xalqi quyidagi shaharlarni panoh shaharlar qilib
ajratdi: yassi tepalik sahrosida joylashgan, Ruben qabilasiga tegishli bo‘lgan Bazer
shahri, Gad qabilasiga tegishli Giladdagi Ramo‘t shahri, Manashe qabilasiga tegishli

Bashandagi Go‘lon shahri. 9 Mana shu shaharlar Isroil xalqi va ularning orasida
yashayotgan begonalar uchun ajratildi. Agar birortasi bexosdan odam o‘ldirib qo‘ysa,
o‘sha panoh shaharlardan biriga qochib boradi. Shunday qilib, jamoa adolatli hukm
chiqarmaguncha, odam o‘ldirgan kishi panoh shaharda xavf–xatarsiz bo‘lib, uni quvib
kelgan qasoskor qo‘lida halok bo‘lmaydi.

21–BOB

Levi qabilasiga berilgan shaharlar

1 Levi qabilasi urug‘boshilari kelib, ruhoniy Elazar*, Nun o‘g‘li Yoshua va Isroil
qabilalarining boshliqlari bilan gaplashishdi. 2 Isroil xalqi hali ham Kan’on yurtidagi
Shilo‘ shahrida* edi. Levi qabilasidan kelganlar shunday deyishdi: “Levi qabilasiga
yashash uchun shaharlar, qo‘y–mollarini boqish uchun esa shaharlarning atrofidagi
yaylovlarni ber, deb Egamiz Musoga amr qilgan edi*.” 3 Isroil xalqi Egamizning o‘sha
amri bo‘yicha, o‘zlarining yerlaridan Levi qabilasiga ba’zi shaharlarni va ularning
atrofidagi yaylovlarni berdi.

4 Qur’a* birinchi bo‘lib, Levi qabilasining Qohot* urug‘iga tushdi. Qohot urug‘idan
bo‘lgan Horun* nasliga Yahudo, Shimo‘n va Benyamin qabilalariga qarashli o‘n uchta
shahar berildi.

5 Yana qur’a bo‘yicha Qohot urug‘ining qolgan oilalariga Iordan daryosining
g‘arbidagi Manashe qabilasining yarmiga tegishli hududdan, Efrayim va Dan qabilalari
hududidan o‘nta shahar berildi.

6 Qur’a tashlanib, Gershon urug‘idan bo‘lganlarga Iordan daryosining sharqidagi
Manashe qabilasining yarmiga tegishli Bashandagi hududdan, Issaxor, Osher va Naftali
qabilalari hududidan o‘n uchta shahar berildi.

7 Qur’a bo‘yicha Marori urug‘iga Ruben, Gad va Zabulun qabilalarining hududidan o‘n
ikkita shahar berildi.

8 Isroil xalqi Egamizning Musoga bergan amriga ko‘ra, qur’a tashlab mana shu
shaharlarni va ularning yaylovlarini Levi qabilasiga berdi.

9-10 Quyida aytib o‘tilgan, Yahudo va Shimo‘n qabilalari hududlaridagi shaharlarni
Isroil xalqi qur’a bo‘yicha, birinchi bo‘lib Horunning nasli bo‘lgan Qohot urug‘iga berdi.
11 Ularga Yahudo qirlaridagi Xirat–Arba*, ya’ni Xevron shahri va uning atrofidagi
yaylovlar berildi. Arba Onoq avlodining* bobokaloni edi. 12 Ammo Xirat–Arba yonidagi
dalalar va atrofidagi qishloqlar Yafunax o‘g‘li Xolibga mulk qilib berilgan edi*.

13 Panoh shaharlaridan biri bo‘lgan Xevrondan tashqari ruhoniy Horun nasliga yana
quyidagi shaharlar va ularning atrofidagi yaylovlar ham berildi: Libna, 14 Yatir,
Eshtamo‘va, 15 Xo‘lun, Davir, 16 Oyin, Yutto va Bayt–Shamash — hammasi bo‘lib Yahudo
va Shimo‘n qabilalarining hududlaridagi mana shu to‘qqizta shahar va ularning
atrofidagi yaylovlar. 17 Benyamin qabilasining hududidan esa quyidagi to‘rtta shahar va
ularning atrofidagi yaylovlar berildi: Givon, Gebo, 18 Onoto‘t, Elmo‘n. 19 Mana shu o‘n
uchta shahar Horun naslidan bo‘lgan ruhoniylarga berildi.

20 Qohot urug‘ining qolgan oilalariga Efrayim qabilasi hududidan quyidagi to‘rtta
shahar va ularning atrofidagi yaylovlar ajratib berildi: 21 Efrayim qirlaridagi panoh
shahri bo‘lgan Shakam, Gezer, 22 Xivzayim, Bayt–Xo‘ron. 23 Dan qabilasining hududidan
quyidagi to‘rt shahar va ularning atrofidagi yaylovlar ham ruhoniylarga berildi: Eltaxa,

Gibiton, 24 Oyjavlon, Gat–Rimmon. 25 Iordanning g‘arb tomonidagi Manashe qabilasining
yarmiga berilgan hududdan quyidagi ikkita shahar va ularning atrofidagi yaylovlar
ruhoniylarga berildi: Tanax, Bilom*. 26 Qohot urug‘ining qolgan oilalariga mana shu
o‘nta shahar va ularning atrofidagi yaylovlar berildi.
27 Iordanning sharqidagi Manashe qabilasining yarmiga berilgan hududdan Levi
qabilasining Gershon urug‘iga quyidagi ikki shahar va ularning atrofidagi yaylovlar
berildi: Beshtara shahri va Bashandagi panoh shahar Go‘lon. 28 Issaxor qabilasining
hududidan ularga yana quyidagi to‘rtta shahar va ularning atrofidagi yaylovlar ham
berildi: Xishion, Dovarat, 29 Yarmut va En–Xannim. 30 Osher qabilasining hududidagi
quyidagi to‘rtta shahar va ularning atrofidagi yaylovlar ham Gershon urug‘iga berildi:
Mishol, Abdo‘n, 31 Xalkat va Rexob. 32 Ular yana Naftali qabilasi hududidan quyidagi
uchta shahar va ularning atrofidagi yaylovlarni ham oldilar: Xammutdo‘r, Kartan va
Jaliladagi panoh shahar Kedesh.
33 Gershon urug‘iga mana shu o‘n uchta shahar va ularning atrofidagi yaylovlar
berildi.
34 Levi qabilasining qolganlariga, ya’ni Marori urug‘iga Zabulun qabilasining
hududidan quyidagi to‘rtta shahar va ularning atrofidagi yaylovlar berildi: Yoxnayom,
Kartax, 35 Dimna, Nahalil. 36 Ruben qabilasining hududidan quyidagi to‘rtta shahar va
ularning atrofidagi yaylovlar ham Marori urug‘iga berildi: Bazer, Yaxaz*, 37 Kadamo‘t,
Mifat. 38 Gad qabilasining hududidan esa quyidagi to‘rtta shahar va o‘sha shaharlarning
atrofidagi yaylovlar ularga berildi: Giladdagi panoh shahar Ramo‘t, Moxanayim,
39 Xashbon, Yazir.
40 Levi qabilasining Marori urug‘iga mana shu o‘n ikkita shahar berildi.
41 Isroil xalqining yerlaridan Levi qabilasiga hammasi bo‘lib qirq sakkizta shahar va
ularning atrofidagi yaylovlar berildi. 42 Mana shu shaharlarning har birining atrofida
yaylovlar bor edi.

Isroil xalqi yerga egalik qiladi

43 Egamiz Isroil xalqiga butun yurtni berdi. Egamizning O‘zi Isroil xalqining ota–
bobolariga, mana shu yerlarni sizlarga beraman, deb va’da qilgan edi. Isroil xalqi u
yerlarni egallab, o‘sha yerlarda joylashdi. 44 Egamiz ularning ota–bobolariga va’da
qilganday, butun yurt bo‘ylab Isroil xalqiga osoyishtalik berdi. Hech bir dushman ularga
bas kela olmadi, chunki Egamizning O‘zi Isroil xalqiga dushmanlarining ustidan g‘alaba
bergan edi. 45 Egamiz Isroil xalqiga bergan ezgu va’dalarning hammasi ro‘yobga chiqdi,
birortasi ham bajarilmay qolmadi.

22–BOB

Yoshua Iordanning sharqidan ulush olgan qabilalarni uylariga qaytarib yuboradi

1 Yoshua Iordan daryosining sharq tomonida ulush olgan Ruben, Gad qabilalarini va
Manashe qabilasining yarmini chaqirib, 2 shunday dedi: “Egamizning quli Muso nima
amr qilgan bo‘lsa, hammasini bajardingiz. Men buyurganlarimning hammasiga itoat
qildingiz. 3 Yurtni egallashga shuncha uzoq vaqt ketgan bo‘lsa ham, siz o‘z
birodarlaringizni tark etmadingiz, Egangiz Xudo qo‘ygan talablarni bitta qoldirmay
bajardingiz. 4 Egangiz Xudo O‘zi va’da qilganday, birodarlaringizga tinchlik berdi.
Egamizning quli Muso sizlarga Iordanning sharq tomonidan ulush bergandi. Endi o‘sha

yerlardagi uylaringizga qaytinglar. 5 Egamizning quli Muso sizlarga buyurgan amr va
qonunlarni bitta qoldirmay bajaringlar. Egangiz Xudoni sevinglar, Uning yo‘lidan yurib,
amrlarini bajarib, Unga sodiq bo‘linglar, Unga butun qalbingiz bilan, jonu dilingiz bilan
xizmat qilinglar.” 6 Yoshua ularni duo qilib, o‘z yerlariga yubordi. Ular o‘z chodirlariga
qaytib ketishdi.
7 Manashe qabilasining yarmiga Muso Bashan o‘lkasini ulush qilib bergan edi,
ikkinchi yarmiga esa Yoshua qolgan Isroil qabilalari bilan birga Iordanning g‘arbidan
yer bergan edi. Yoshua duo qilib, ularni o‘z chodirlariga yuborayotganda, 8 shunday
degan edi: “O‘z chodirlaringizga ko‘p boylik bilan, nihoyatda ko‘p mol–qo‘y, kumush,
oltin, bronza, temir, ko‘p kiyim–kechaklar bilan qaytib ketyapsizlar.
Dushmanlaringizdan olgan o‘sha o‘ljalarni birodarlaringiz bilan bo‘lishib olinglar.”
9 Shunday qilib, Ruben, Gad qabilalari va Manashe qabilasining yarmi o‘z uylariga qaytib
ketishdi. Ularning hududi Iordan daryosining sharqida joylashgan edi. Egamiz O‘z quli
Muso orqali ularga amr qilib: “Mana shu yerlarni egallab olib, shu yerda joylashinglar”,
degan edi. Isroil xalqining qolgan qabilalari Kan’on yurtidagi Shilo‘da* qoldi.

Iordan daryosi bo‘yidagi qurbongoh

10 Ruben, Gad qabilalari va Manashe qabilasining yarmi hali ham Kan’on yurtida
ekanlar, Iordan daryosidan o‘tishdan oldin, daryoning yonidagi Gelilo‘t degan joyda juda
katta qurbongoh qurishdi. 11 Qolgan Isroil xalqiga: “Iordanning sharqidan ulush olgan
Ruben, Gad qabilalari va Manashe qabilasining yarmi biz tomonda, Kan’on yurtining
chegarasida, Gelilo‘tda qurbongoh quribdi” degan xabar keldi. 12 Isroil xalqining jamoasi
buni eshitib, Manashe qabilasining yarmi, Ruben va Gad qabilalariga qarshi jang qilish
uchun Shilo‘da yig‘ildi.
13 Ammo avval ular Giladga — Manashe qabilasining yarmi va Ruben, Gad
qabilalarining oldiga ruhoniy Elazar* o‘g‘li Finxazni yuborishdi. 14 Iordanning g‘arbidagi
qabilalarning har biridan bir kishi — o‘z qabilasining boshlig‘i bo‘lgan o‘n kishi ham
Finxaz bilan birga bordi. 15 Ular Iordan daryosidan o‘tib, Giladga bordilar. O‘sha yerda
Finxaz va u bilan kelganlar Ruben, Gad qabilalari va Manashe qabilasining yarmiga
shunday dedilar:
16 — Biz Egamiz jamoasi nomidan gapiryapmiz. Nima uchun Isroil xalqining
Xudosiga xiyonat qildingiz? Qanday qilib Egamizdan yuz o‘girib, Unga qarshi bosh
ko‘tarib, o‘zingizga qurbongoh qurdingiz?* 17 Piyor tog‘ida qilgan gunohimiz*
yetmasmidi?! O‘sha gunoh tufayli Egamizning butun jamoasi boshiga ofat keldi–ku. Biz
hali ham o‘sha gunohdan butunlay poklanganimiz yo‘q. 18 Sizlar esa yana Egamizdan yuz
o‘giryapsiz?! Sizlar bugun Egamizga qarshi bosh ko‘targan bo‘lsangiz, ertaga U butun
Isroil jamoasidan g‘azablanadi. 19 Yeringiz Egamizga sajda qilishga mos kelmaydigan joy
bo‘lsa, daryoning narigi tomoniga — Egamizning Muqaddas chodiri tikilgan joyga o‘tib,
bizning oramizda o‘zingizga biror yerni mulk qilib olinglar. Ammo Egamiz Xudoning
qurbongohidan tashqari yana boshqa qurbongoh qurib olib, Egamizga yoki bizga qarshi
bosh ko‘tarmanglar*. 20 Zerax o‘g‘li Oxun Egamizga xiyonat qilib*, bag‘ishlangan
narsalardan* o‘g‘irlagan edi. Shu tufayli butun Isroil xalqining boshiga kulfat tushdi–ku!
O‘sha gunoh dastidan yolg‘iz uning o‘zi halok bo‘lmadi–ku!
21 Shunda Ruben, Gad qabilalari va Manashe qabilasining yarmi Isroil qabilalarining
boshliqlariga shunday javob berishdi:

22 — Xudolar Xudosi Egamizdir! Xudolar Xudosi Egamizdir! Uning Oʻzi guvohimiz boʻlsin. Egamizning Oʻzi biladi. Butun Isroil xalqi ham bilsin. Biz qurbongohni Egamizga qarshi bosh koʻtarib yoki Unga xiyonat qilib qurganimiz yoʻq. Agar shu niyatda qurbongoh qurgan boʻlsak, endi bizni ayamanglar. 23 Biz bu qurbongohni Egamizdan yuz oʻgirganimiz uchun emas, hatto shu qurbongoh ustida kuydiriladigan qurbonliklaru don nazrlari va tinchlik qurbonliklari keltirish uchun ham qurganimiz yoʻq. Agar shu niyatda qurbongoh qurgan boʻlsak, Egamizning Oʻzi bizni jazolasin. 24 Biz qoʻrqqanimizdan shunday qildik. Vaqti kelib, sizlarning avlodlaringiz bizning avlodimizga shunday deb qolishi mumkin: “Isroil xalqining Xudosi — Egamiz bilan sizlarning nima ishingiz bor?! 25 Egamiz sizlar — Ruben va Gad qabilalari bilan bizning oramizda Iordan daryosini chegara qilib qoʻydi, Egamizda sizning hech haqingiz yoʻq.” Sizlarning avlodingiz shunday deb bizning avlodlarimizni Egamizga sajda qilishdan toʻxtatib qoʻyishi mumkin. 26 Shuning uchun biz shunday dedik: “Kelinglar, qurbongoh quraylik, bu qurbongoh kuydiriladigan qurbonliklaru boshqa har xil qurbonliklar keltirish uchun ishlatilmaydi.” 27 Biz bu qurbongohni siz bilan bizning oramizda, bizdan keyingi avlodlar orasida guvoh boʻlsin, deb qurdik. Biz ham, sizlar qatori, Egamizning Muqaddas chodiri oldida Egamizga sajda qilib, oʻsha yerda kuydiriladigan qurbonliklar, don nazrlari va tinchlik qurbonliklari keltirishga haqli ekanimizni mana shu qurbongoh koʻrsatadi. Shunda sizlarning avlodlaringiz bizning avlodlarimizga hech qachon: “Egamizda sizlarning haqingiz yoʻq”, — demaydi. 28 Bordi–yu, shunday deb aytishsa, biz yoki avlodlarimiz quyidagiday javob bera olamiz: “Mana, Egamiz qurbongohining nusxasiga qaranglar. Bizning ajdodlarimiz uni kuydiriladigan qurbonliklar va boshqa har xil qurbonliklar keltirish uchun emas, balki siz bilan bizning oʻrtamizda guvoh boʻlishi uchun qurishgan.” 29 Faqat Egamiz Xudoning Chodiri oldida turgan qurbongohdagina Unga atab kuydiriladigan qurbonliklar, don nazrlari va boshqa qurbonliklar keltirish mumkin. Egamizga qarshi bosh koʻtarishdan, Undan yuz oʻgirishdan Uning Oʻzi bizni saqlasin. Biz qurbonliklar keltirish uchun qurbongoh qurmaymiz.

30 Ruben, Gad qabilalari va Manashe qabilasining yarmi aytgan bu gaplarni eshitib, ruhoniy Finxaz va u bilan birga kelgan Isroil xalqining boshliqlari juda mamnun boʻlishdi. 31 Ruben, Gad qabilalariga va Manashe qabilasining yarmiga Elazar shunday dedi:

— Egamiz biz bilan birga ekanligiga bugun amin boʻldik. Sizlar Egamizga xiyonat qilmay, butun Isroil xalqini Uning gʻazabidan saqlab qoldingiz.

32 Keyin Elazar va Isroil xalqi boshliqlari Giladdan Kan’on yurtiga, Isroil xalqining oldiga qaytib kelib nima boʻlganini aytib berishdi. 33 Ular olib kelgan xabar Isroil xalqini mamnun qildi. Isroil xalqi Xudoga hamdu sano aytib, Ruben va Gad qabilalariga qarshi jang qilish va ularning yerlarini vayron qilish haqida boshqa ogʻiz ochmadi. 34 Ruben va Gad qabilalari qurbongohga Guvoh degan nom berishdi*, chunki ular: “Egamiz — Xudo ekanligini bu qurbongoh hammamizga eslatib turadi”, deb aytishgan edi.

23–BOB

Yoshuaning oxirgi nasihatlari

1 Oradan yillar oʻtdi. Egamiz Isroil xalqiga tinchlik ato qildi, atrofdagi dushmanlar ularga xavf solmas edi. Yoshua ham yoshi ancha oʻtib, qarib qolgan edi. 2 U butun Isroil

xalqini, ularning oqsoqollariyu boshliqlarini, hakam va nazoratchilarini chaqirib shunday dedi: “Mening yoshim ham o‘tdi, ancha qarib qoldim. 3 Egangiz Xudo sizlar uchun atrofingizdagi xalqlarni nima qilganini ko‘rdingiz. Egangiz Xudoning O‘zi sizlar uchun jang qildi. 4 Men Isroil xalqining qabilalariga sharqda Iordan daryosidan boshlab g‘arbdagi O‘rta yer dengizigacha* bo‘lgan yerlarni mulk qilib berdim. Men sizlarga mag‘lub bo‘lgan xalqlarning ham, hali mag‘lub qilinmagan xalqlarning ham yerlarini taqsimlab berdim. 5 Egangiz Xudoning O‘zi o‘sha xalqlarni oldingizdan haydab, orqaga chekintiradi. Egangiz Xudoning O‘zi va’da qilganday, sizlar ularning yerlarini egallaysizlar. 6 Musoning Tavrot kitobida* yozilgan barcha qonunlarga amal qilinglar. Ularni bitta qoldirmay bajaringlar. 7 Orangizda qolgan o‘zga xalqlarga qo‘shilmanglar. Ularning xudolarining nomlarini tilga ham olmanglar, o‘sha xudolarning nomi bilan qasam ichmanglar. U xudolarga sajda ham qilmanglar, xizmat ham qilmanglar. 8 Sizlar shu paytgacha Egangiz Xudoga sodiq bo‘lib keldingizlar, bundan keyin ham Unga sodiq bo‘lib qolinglar. 9 Egamiz sizlarning oldingizdan katta va kuchli xalqlarni haydab chiqardi, mana shu kungacha hech kim sizlarga bas kela olgani yo‘q. 10 Egangiz Xudo va’da qilganday, Uning O‘zi sizlar uchun jang qiladi. Dushmanlarning mingtasi bittangizga bas kela olmaydi. 11 Shuning uchun doimo chin dildan Egangiz Xudoni sevinglar. 12 Undan yuz o‘girmanglar, orangizdagi o‘zga xalqlar bilan aralashmanglar, ular bilan quda–andachilik qilmanglar. 13 Agar shunday qilsangiz, bilib qo‘yingki, Egangiz Xudo o‘sha xalqlarni sizlarning oldingizdan boshqa haydab chiqarmaydi. Ular sizlarga qopqon va tuzoqday, yelkalaringizga qamchiday, ko‘zlaringizga esa tikanday bo‘ladi. Oxiri, Egangiz Xudo sizlarga bergan mana shu hosildor yurtda birortangiz ham tirik qolmaysiz.

14 Men ham bir bandaman, umrim oxirlab boryapti. Shubhasiz, hammangiz bilasiz, Egangiz Xudo sizlarga yaxshi va’dalar bergan edi, shu va’dalarning hammasi ro‘yobga chiqdi, ularning birortasi ham bajarilmay qolmadi. 15 Egangiz Xudo sizlarga va’da qilgan barcha yaxshi narsalarni ro‘yobga chiqardi. Agar Egamizga itoat qilmasangiz, U sizlarni ogohlantirib aytgan kulfatlarni boshingizga soladi. Oqibatda U sizlarga bergan mana shu hosildor yurtdan sizlarni butunlay yo‘q qilib tashlaydi. 16 Agar sizlar Egangiz Xudo bilan qilgan ahdni buzib, boshqa xudolarga ergashsangiz, ularga xizmat qilib, sajda qilsangiz, sizlarga qarshi Egamizning g‘azabi qo‘zg‘aydi–da, U sizlarga bergan mana shu hosildor yurtda tez orada qirilib ketasizlar.”

24–BOB

Yoshuaning Shakamda so‘zlagan nutqi

1 Keyin Yoshua barcha Isroil qabilalarini, ularning oqsoqollarini, boshliqlarini, hakamlarini va nazoratchilarini Shakamga* chaqirtirdi. Ular Xudoning huzuriga keldilar. 2 Yoshua butun xalqqa shunday dedi:

— Isroil xalqining Xudosi — Egamiz shunday demoqda: “Qadimda sizlarning ajdodlaringiz, jumladan, Terah va uning o‘g‘illari Ibrohim hamda Naxo‘r Furot daryosining narigi tomonida yashaganlar. Ular boshqa xudolarga xizmat qilganlar. 3 Men sizlarning ota–bobongiz bo‘lgan Ibrohimni Furotning narigi tomonidagi yerdan olib chiqib, butun Kan’on yurti bo‘ylab boshlab bordim. Ibrohimning naslini ko‘paytirdim. Ibrohimga Is’hoqni berdim. 4 Is’hoqqa esa Yoqub va Esovni berdim. Esovga yashash

uchun Seir tog‘larini* berdim. Yoqub va uning farzandlari esa Misrga bordilar. 5 Keyin
Muso va Horunni Misrga yuborib, Misr xalqining boshiga falokatlar keltirdim.
O‘shandan keyin sizlarni Misrdan olib chiqdim. 6 Ota–bobolaringiz Qizil dengizga yetib
keldi. Misrliklar esa aravakashlari va jang aravalari bilan ularni Qizil dengizgacha* quvib
bordilar. 7 Ota–bobolaringiz Menga iltijo qilganlarida, Men Misrliklar va ota–
bobolaringiz orasiga zulmat tushirdim. Misrliklarning ustiga dengiz suvlarini bostirib,
ularni cho‘ktirdim. Misrni qay ahvolga solganimni sizlar o‘z ko‘zingiz bilan ko‘rdingiz.
Undan keyin sizlar sahroda uzoq vaqt yashadingiz. 8 Keyin Men sizlarni Iordan
daryosining sharq tomonidagi yurtga olib keldim. U yerda Amor xalqi yashar edi. Ular
sizlarga qarshi chiqib jang qildi. Men sizlarga ularning ustidan g‘alaba ato qildim. Ularni
sizlarning oldingizdan qirib tashladim, sizlar ularning yerlarini egallab oldingiz. 9 Keyin
Mo‘ab shohi — Zippur o‘g‘li Boloq sizlarga qarshi jangga chiqdi. Isroil xalqini la’natlasin
deb, u Bavo‘r o‘g‘li Balomni chaqirtirdi*. 10 Ammo Men Balomga quloq solmadim,
aksincha, u o‘z ixtiyoriga qarshi sizlarni duo qildi. Shunday qilib, Men sizlarni Boloqning
qo‘llaridan qutqardim. 11 Sizlar Iordandan o‘tib, Yerixoga kelganingizda, Yerixo aholisi
sizlarga qarshi jang qildi. Amor, Pariz, Kan’on, Xet, Girgosh, Xiv va Yobus xalqlari ham
sizlarga qarshi urush qildi. Men sizlarga ularning ustidan g‘alaba berdim. 12 Ikki Amor
shohini* vahimaga soldim–da, quvib yubordim*. Bu g‘alabaga sizlar o‘z qilichu
kamoningiz bilan erishmadingiz. 13 Men sizlarga o‘zingiz ishlov bermagan yerlarni
berdim. Endi sizlar o‘zingiz qurmagan shaharlarda yashayapsizlar, o‘zingiz ekmagan
uzumzoru zaytun bog‘larining mevasini yeyapsizlar.”

14 Yoshua gapida davom etib, shunday dedi:

— Endi Egamizdan qo‘rqing, Unga sodiq bo‘lib, doimo chin dildan xizmat qiling.
Ajdodlaringiz Furot daryosining narigi tomonida va Misrda sajda qilgan xudolarning
tasvirlarini uloqtirib yuboring, faqatgina Egamizga xizmat qiling. 15 Agar Egamizga
xizmat qilishni ma’qul ko‘rmasangiz, kimga xizmat qilishingizni bugun tanlang. Furot
daryosining narigi tomonida yashagan paytda sajda qilgan xudolaringizga xizmat
qilasizlarmi? Yoki oldin Amor xalqlariga tegishli bo‘lgan yerlarda yashayotganingiz
uchun endi ularning xudolariga xizmat qilasizlarmi? Bugun tanlang. Men va oilam esa
Egamizga xizmat qilamiz.

16 Xalq shunday javob berdi:

— Xudo saqlasin! Biz hech qachon boshqa xudolarga xizmat qilish uchun Egamizni
tashlab ketmaymiz! 17 Bizni va ota–bobolarimizni Misrdagi qullikdan olib chiqqan
Egamiz Xudodir. U qilgan mo‘jizalarni biz o‘z ko‘zimiz bilan ko‘rdik. Turli xalqlarning
orasidan o‘tganimizda, qayerga bormaylik, U bizni himoya qildi. 18 Mana shu yurtda
yashagan Amor va boshqa xalqlarning hammasini Egamiz bizning oldimizdan haydab
yubordi. Shuning uchun ham biz Egamizga xizmat qilamiz, U bizning Xudoyimizdir.

19 Yoshua xalqqa shunday dedi:

— Egamiz Muqaddas Xudodir. U sizning sevgingizni boshqa xudolar bilan baham
ko‘rmaydigan Xudodir. Egamizga sodiq qolish oson, deb o‘ylamanglar. Agar Unga qarshi
bosh ko‘tarsangiz yoki gunoh qilsangiz, U sizlarni kechirmaydi. 20 Egamiz sizlarga
shuncha yaxshilik qilgan bo‘lsa ham, agar Uni tashlab, boshqa xudolarga xizmat
qilsangiz, U boshingizga kulfat keltirib, sizlarni qirib tashlaydi.

21 Xalq Yoshuaga shunday dedi:

— Yo‘q, boshqa xudolarga xizmat qilmaymiz, biz Egamizga xizmat qilamiz!

22 Shunda Yoshua xalqqa dedi:
— Sizlar, Egamizga xizmat qilamiz, deb qaror qildingiz. Bunga o‘zingiz guvohsiz.
— Ha, guvohmiz, — deb javob berdi xalq.
23 Yoshua:
— Unday bo‘lsa, orangizdagi begona xudolarning tasvirlarini uloqtirib yuboringlar, butun qalbingiz bilan Isroil xalqining Xudosi — Egamizga bog‘laninglar, — dedi.
24 Xalq Yoshuaga shunday dedi:
— Egamiz Xudoga xizmat qilamiz, Unga quloq solamiz.
25 O‘sha kuni Yoshua Shakamda xalq bilan ahd tuzib, ular bajarishlari uchun qonun–qoidalar berdi. 26 Yoshua bu so‘zlarni Xudo O‘z xalqiga bergan qonunlar bayon etilgan kitobga yozdi. Keyin katta tosh olib, uni Egamizga atalgan sajdagohdagi* eman daraxtining tagiga yodgorlik qilib o‘rnatdi. 27 Yoshua butun xalqqa shunday dedi:
— Qaranglar, mana shu tosh Egamiz bizga aytgan hamma gaplarni eshitdi, shuning uchun agar Egamizga bergan va’damizda turmasak, bu tosh bizga qarshi guvoh bo‘ladi.
28 Shundan keyin Yoshua xalqni ularga ulush qilib bergan yerlarga yubordi.

Yoshua va Elazar vafot etadilar

29 Birmuncha vaqtdan keyin Egamizning quli Yoshua 110 yoshga kirib vafot etdi.
30 Uni Timnat–Serax shahrida dafn qildilar. Bu shahar unga ulush qilib berilgan bo‘lib*, Gash tog‘ining shimolida, Efrayim qirlarida joylashgan edi.
31 Yoshua davrida Isroil xalqi Egamizga xizmat qilar edi. Ular Yoshuaning o‘limidan so‘ng, Egamiz Isroil uchun qilgan hamma ishlarini ko‘rgan oqsoqollar davrida ham Egamizga itoat qilishar edi.
32 Isroil xalqi Misrdan chiqqanda Yusufning suyaklarini o‘zlari bilan olgan edi*. Ular mana shu suyaklarni Shakamda ko‘mishdi. Yoqub bu yerni Shakamning otasi Xamo‘rning o‘g‘illaridan yuz bo‘lak kumushga* sotib olgan edi*. O‘sha yer Yusuf avlodlarining ulushi bo‘lib qoldi.
33 Horun o‘g‘li Elazar ham vafot etdi. Elazarning o‘g‘li Finxazga Efrayim qirlaridagi Givo shahri ulush qilib berilgan edi. Elazar o‘sha joyga dafn qilindi.

IZOHLAR

1:2 *...Iordan daryosidan o‘tishga tayyorlaninglar* — o‘sha paytda Isroil xalqi Iordan daryosining sharqidagi Mo‘ab tekisligida turar edi (Sahroda 36:13 ga qarang).

1:4 *O‘rta yer dengizi* — ibroniycha matnda *Buyuk dengiz*.

1:4 *...Xet xalqining hamma yerlari...* — bu o‘rinda Suriyaning shimoldagi yerlari nazarda tutilgan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi XET XALQI iborasiga qarang.

1:8 *Tavrot kitobi* — Qonunlar kitobida yozilganlarning aksariyat qismi nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin (Qonunlar 29:21, 30:10, 31:24-26 ga qarang).

1:13 *...Muso sizlarga amr qilib aytgan so‘zlarini eslang* — Sahroda 32:28-33, Qonunlar 3:18-20 ga qarang.

2:1 *Shitimdagi qarorgoh* — O‘lik dengizning shimoli–sharqida, Mo‘ab tekisligida joylashgan (Sahroda 33:49 ga qarang).

2:1 *Yerixo shahri* — o‘sha hududdagi eng muhim shahar. Iordan daryosidan qariyb 10 kilometr g‘arbda joylashgan.

2:7 *...shahar darvozasi yopildi* — odatda qadimgi paytlarda shaharlar devor bilan o‘ralgan bo‘lib, katta darvozasi ham bor edi. Xavfsizlik maqsadida darvoza kechasi yopib qo‘yilardi.

2:10 *Qizil dengiz* — ibroniycha matnda *Yom–Suf*, ma’nosi *Qamish dengizi*. Bu oyatdagi mana shu nom ostida hozirgi Suets qo‘ltig‘i (ya’ni Qizil dengizning shimoli–g‘arbidagi qo‘ltiq) yoki Suets qo‘ltig‘i va O‘rta yer dengizi oralig‘ida joylashgan ko‘llardan biri nazarda tutilgan. Chiqish 14:10-31 dagi hodisalarning tafsilotiga ko‘ra, bu dengiz kattaligidan Isroil xalqiga to‘siq bo‘lgan, chuqurligidan Misr lashkari cho‘kib ketgan.

2:15 *Rahobaning uyi shahar devorlariga taqalib qurilganligi uchun...* — qadimgi paytlarda shaharlar baland devorlar bilan o‘ralgan edi. Bu devorlar shaharni bosqinchilar hujumidan himoya qilardi. Arxeologik qazuvlar natijasida Yerixo shahrining devorlari ikki qavat — ichki va tashqi devorlardan iborat bo‘lganligi aniqlangan. Ichki va tashqi devorning oralig‘i taxminan to‘rt metr bo‘lib, bir devordan boshqa devorga taqab o‘rnatilgan yo‘g‘on yog‘ochlar ustiga uylar qurilgandi. Rahoba ayg‘oqchilarni chiqarib yuborgan deraza shaharning tashqi devorida joylashgan edi.

2:23 *Ular daryoni kechib o‘tib...* — ayg‘oqchilar Isroil xalqi qarorgoh qurgan joyga — daryoning sharq tomoniga qaytib borgan edilar (1:2 ga qarang).

3:4 *ikki ming tirsak* — taxminan 900 metrga to‘g‘ri keladi.

3:5 *O‘zingizni poklang...* — diniy xizmatni lozim darajada bajarishga monelik qiladigan nopoklikdan tozalanish marosimi nazarda tutilgan.

3:10-11 *...Ahd sandig‘i oldingizda Iordan daryosidan o‘tadi* — Ahd sandig‘ini ko‘tarib borgan ruhoniylar birinchi bo‘lib daryoga kirishlari kerak edi (shu bobning 13-14–oyatlariga qarang). Matnda Xudo O‘z xalqini jangga boshlab borishiga urg‘u berilgan. Ahd sandig‘i Xudo huzurining ramzi bo‘lib xizmat qilardi.

3:15 *Hosil mavsumi* — kech bahor paytiga ishora.

3:16-17 *...Zoraton yonidagi Adam shahri...* — Adam Yerixodan qariyb 30 kilometr shimolda, Zoraton shahri esa Adamdan qariyb 20 kilometr shimolda joylashgan.

3:16-17 *O‘lik dengiz* — ibroniycha matnda *Araba dengizi, ya’ni Tuz dengizi*. Araba umumiy geografik nom bo‘lib, bu oyatda O‘lik dengiz joylashgan cho‘l yerlarni bildiradi.

4:9 *bugungacha* — shu kitob yozilgan vaqtga ishora.

4:12 *Muso buyurganday...* — 1:12-15 va Sahroda 32:16-33 ga qarang.

4:14 *...Isroil xalqining ko‘zi oldida Yoshuaning nomini yuksaltirdi* — 3:7 ga qarang.

4:15-16 *Ahd sandig‘i* — ibroniycha matnda *Guvohlik sandig‘i*, Ahd sandig‘ining yana bir nomi. Ibroniycha matndagi iboraning *guvohlik* so‘zi o‘nta amr yozilgan ikkita tosh lavhaga ishora qiladi. Ikkala tosh lavha Sandiqning ichida saqlanib, Xudo va Uning xalqi o‘rtasida tuzilgan ahdning dalili, ya’ni toshga bitilgan guvohlik bo‘lib xizmat qilardi.

4:19 *birinchi oy* — ibroniy kalendarining Abib oyi nazarda tutilgan (Abib oyi Nison oyi deb ham ataladi). Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan martning o‘rtasidan boshlanadi.

4:19 *Gilgal* — bu joy Yerixodan qariyb 4 kilometr shimoli–sharqda bo‘lgan.

4:23 *Qizil dengiz* — ibroniycha matnda *Yom–Suf*, ma’nosi *Qamish dengizi*. 2:10 izohiga qarang.

5:2 *Toshdan pichoqlar yasab...* — bu tosh pichoqlar qoyatoshning uzun, ensiz parchasidan yasalgan edi. Qoyatoshni yo‘nib, undan o‘tkir tig‘ hosil qilishar edi.

5:2 *...Isroil xalqining bu yangi avlodini sunnat qilinglar* — sunnat Xudoning Ibrohim va uning avlodi bilan qilgan ahd belgisi edi (Ibtido 17:9-14 ga qarang). Xalq sunnat qilinmay turib Fisih ziyofatini nishonlay olmasdi (Chiqish 12:48-49 ga qarang).

5:3 *Givot–Xarilo‘t* — ibroniychadagi ma’nosi *Sunnat terisi tepaligi*.

5:6 *sut va asal oqib yotgan yurt* — nihoyatda hosildor yerni bildiruvchi ibora. Mo‘l–ko‘l sut — mol uchun ko‘m–ko‘k yaylovlarning ko‘pligini bildiradi. Asal — xurmodan olinadigan quyuq, shirin murabboga ishora bo‘lishi mumkin. Murabboning mo‘lligi yaxshi hosil beradigan yerni bildiradi.

5:9 *Gilgal* — bu nom ibroniychadagi *dumalatib tashlamoq* so‘ziga ohangdosh. Bu oyatda o‘sha ibroniycha so‘z *olib tashladim* deb tarjima qilingan.

5:10 *...oyning o‘n to‘rtinchi kunida...* — ibroniy kalendarining birinchi oyi nazarda tutilgan (4:19 ning birinchi izohiga qarang).

5:11 *xamirturushsiz non* — Fisih ziyofatida va undan keyin bir hafta davomida Isroil xalqi faqat xamirturushsiz nonlarni iste’mol qilishlari kerak edi. O‘sha hafta Xamirturushsiz non bayrami deb atalgan (Chiqish 12:14-20, 13:3-10 ga qarang).

5:12 *manna* — Xudo Isroil xalqiga qirq yil davomida sahroda yetkazib turgan maxsus yegulik. Manna, Shabbat kunidan tashqari, har kuni kechasi yerga yog‘ilardi, odamlar saharda turib, uni yig‘ib olishardi. So‘ng uni yanchib, non yopishardi yoki qaynatib ovqat tayyorlashardi (Chiqish 16:13-35, Sahroda 11:7-9 ga qarang).

6:16 *...bag‘ishlanib, yo‘q qilinsin* — shu ibora bilan tarjima qilingan ibroniycha so‘zning ma’nosi quyidagicha: butun shahar, u yerdagi odamlaru hayvonlar va buyumlar Xudoga

bag‘ishlanib, tamoman yo‘q qilingan. Ba’zi hollarda buyumlar Xudoga nazr qilingan.

6:22 *…ularni Isroil qarorgohining yoniga…keltirdilar* — Rahoba va uning oilasi Kan’onlik bo‘lganlari uchun harom hisoblangan edilar. Shu bois ular Isroil qarorgohiga olib kirilmagan edi. Agar ayg‘oqchilar ularni Isroil qarorgohiga olib kirganlarida edi, qarorgoh bulg‘angan bo‘lar edi. Oqibatda, Egamiz Isroil lashkariga jangda yordam bermagan bo‘lardi (Qonunlar 23:9-14 ga qarang). Keyinchalik Rahoba va uning xonadoni Isroil xalqiga qo‘shilib (shu bobning 24–oyatiga qarang), Rahoba Salmo‘nga erga tegadi (Matto 1:5 ga qarang). Shoh Dovud Rahoba naslidan kelib chiqadi (Rut 4:18-22 ga qarang).

6:23 *Egamizning uyi* — o‘sha davrda Isroil xalqi Egamizga sajda qilgan joy, ya’ni Muqaddas chodirga ishora.

6:24 *Uning xonadoni o‘shandan beri Isroilda yashaydi* — shu kitob yozilgan davrda Rahobaning xonadoni Isroil xalqi orasida yashardi.

6:25 *…Egamiz oldida la’nati bo‘lsin!* — bu so‘zlar shoh Axab davrida amalga oshgan (3 Shohlar 16:34 ga qarang).

7:1 *bag‘ishlangan narsalar* — 6:17-20 oyatlarga va 6:16 izohiga qarang.

7:1 *Zimri* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Zabdi* (shu bobning 17, 18–oyatlarida ham bor). Uning Zimri degan shakli 1 Solnomalar 2:6 dan olingan.

7:1 *Egamiz Isroil xalqidan qattiq g‘azablandi* — faqat Oxun itoatsizlik qilgan bo‘lsa–da, Egamizning amri buzilgani uchun butun Isroil xalqi aybdor hisoblangan edi.

7:2 *Ay shahri* — Yerixo shahridan qariyb 24 kilometr g‘arbda, Baytil shahridan qariyb 3 kilometr janubi–sharqda joylashgan.

7:5 *tosh qaziladigan joy* — yoki *Shebarim*.

7:14 *Egamiz…tanlaydi* — Egamiz O‘z irodasini odamlarning qur’a tashlashi orqali ayon qilgan bo‘lishi mumkin. Qur’a tashlashda yog‘och bo‘laklari yoki toshlar ishlatilgan bo‘lib, shu orqali biror ishni qanday yoki qachon qilish kerakligi aniqlangan. Bu yerda qur’a kim aybdor ekanini ko‘rsatgan (shu bobning 16-18–oyatlariga qarang).

7:21 *Shinar* — Mesopotamiyadagi, ya’ni Dajla va Furot daryolari orasida joylashgan yerlardagi bir hududning qadimgi nomi. Keyinchalik bu hududda Bobil shohligi barpo bo‘lgan.

7:21 *500 misqol* — ibroniycha matnda *200 shaqal*, taxminan 2,2 kiloga to‘g‘ri keladi.

7:21 *125 misqol* — ibroniycha matnda *50 shaqal*, taxminan 550 grammga to‘g‘ri keladi.

7:26 *Oxor* — ibroniychadagi ma’nosi *kulfat*.

8:14 *Iordan vodiysi* — ibroniycha matnda *Araba*. Araba umumiy geografik nom bo‘lib, bu oyatda Iordan vodiysining bir qismiga, aynan O‘lik dengizning shimolidagi yerlarga nisbatan ishlatilgan.

8:15 *sahro taraf* — sahro Ay shahridan sharqda joylashgan.

8:28 *bugungacha* — shu kitob yozilgan vaqtga ishora (shu bobning 29–oyatida ham bor).

8:29 *…kechgacha…* — Qonunlar 21:22-23 ga qarang.

8:30 *Yoshua…Ebal tog‘ida qurbongoh qurdi* — Qonunlar 27:1-8 ga qarang. Ebal tog‘i Ay shahridan qariyb 32 kilometr shimolda joylashgan.

8:31 *Tavrot kitobi* — 1:8 izohiga qarang.

8:31 *Tavrot kitobidagi ko‘rsatmalar* — Chiqish 20:25, Qonunlar 27:5-6 ga qarang.

8:33 *…Garizim tog‘i…Ebal tog‘i…* — Garizim tog‘i Ebal tog‘idan janubda joylashgan. Bu ikki tog‘ orasidan Shakam vodiysi o‘tgan.

8:33 *Muso…buyurgan edi* — Qonunlar 27:11-13 ga qarang.

9:1 *O‘rta yer dengizi* — ibroniycha matnda *Buyuk dengiz*.

9:3 *Givon* — Ay shahridan qariyb 10 kilometr janubi–g‘arbda joylashgan shahar.

9:4 *…yo‘lga tayyorgarlik ko‘rib…* — yoki *…o‘zlarini elchi qilib ko‘rsatmoqchi bo‘lib…*.

9:6 *Gilgaldagi qarorgoh* — 4:19 ga va o‘sha oyatning ikkinchi izohiga qarang.

9:7 *Xiv xalqidan bo‘lgan bu odamlar* — Givon shahridan edilar. Egamiz Xiv xalqini boshqa xalqlar qatori Kan’on yurtidan haydab yuborishni Isroil xalqiga amr qilgan edi (3:10 ga qarang).

9:7 *Balki sizlar bizga yaqin joyda yasharsizlar, biz qanday qilib sizlar bilan sulh tuzamiz?* — Xudoning Muso orqali bergan amriga ko‘ra, Isroil xalqi faqat olis yurtlarda yashaydigan xalqlar bilan sulh tuzishi mumkin edi (Qonunlar 20:10-15 ga qarang). Kan’on yurtida istiqomat qilayotgan barcha xalqlarni esa bitta qoldirmay qirib tashlashi shart edi (Qonunlar 20:16-18 ga qarang).

9:10 *…Sixo‘nni va…O‘gni nimalar qilganini…* — Sahroda 21:21-35, Qonunlar 2:24-3:11 ga qarang.

9:17 *Givon, Xafira, Baro‘t va Xirat–Yo‘rim* — bu shaharlar Isroil xalqining Gilgaldagi qarorgohidan qariyb 30-50 kilometr g‘arbda joylashgan.

9:23 *Xudoyimning uyi* — o‘sha davrda Isroil xalqi Xudoga sajda qilgan joy, ya’ni Muqaddas chodirga ishora.

9:27 *bugungacha* — shu kitob yozilgan vaqtga ishora.

10:1 *Quddus* — o‘sha paytda Quddus shahri Isroil xalqiga emas, balki Yobus xalqiga tegishli edi.

10:3 *Xevron…Eglon…* — Xevron shahri Quddusdan qariyb 32 kilometr janubi–g‘arbda joylashgan edi. Yarmut, Laxish va Eglon shaharlari ham Quddusga yaqin joyda, qariyb 25-55 kilometr janubi–g‘arbda joylashgan edi.

10:9 *…Gilgaldan…* — Givon va Gilgal orasidagi masofa qariyb 32 kilometrga to‘g‘ri kelardi.

10:10 *…Ozikah va Makkedoga yetib…* — qariyb 30 kilometrli masofa.

10:12 *Oyjavlon vodiysi* — Givon shahridan qariyb 15 kilometr g‘arbda joylashgan.

10:13 *“Yoshur” kitobi* — ibroniychadagi ma’nosi *Solihlar kitobi*. Ehtimol, bu kitob jangnoma bo‘lib, qadimiy dostonlar va qo‘shiqlar majmuasidan iborat edi. Bu kitob hozirgi kungacha saqlanib qolmagan. 2 Shohlar 1:18 da ham o‘sha kitobga ishora qilingan.

10:28 *Makkedo shahri* — bu shahar, shuningdek, shu bobning 28-38–oyatlarida aytib o‘tilgan hamma shaharlar Kan’onning janubida joylashgan edi.

10:40 *Nagav cho‘li* — hozirgi Isroilning janubida, O‘lik dengizning janubi–g‘arbida joylashgan yerlar.

10:41 *Go‘shen yerlari* — Yahudo qabilasiga berilgan qirlar va janubda joylashgan Nagav cho‘li oralig‘idagi yerlar. Ibtido va Chiqish kitoblarida tilga olingan Misr yurtidagi Go‘shendan boshqa yerlar.

11:1 *Xazor shahri* — Jalila ko‘lidan qariyb 15 kilometr shimolda joylashgan. Bu shahar va mazkur bobning 1-15–oyatlarida aytib o‘tilgan hamma shaharlar Kan’onning shimolida joylashgan.

11:2 *Jalila ko‘li* — ibroniycha matnda *Keneret*, o‘sha vaqtda Jalila ko‘li va uning atrofidagi yerlar shu nom bilan ham atalardi.

11:2 *Iordan vodiysi* — ibroniycha matnda *Araba*. Araba umumiy geografik nom bo‘lib, bu oyatda Iordan vodiysiga nisbatan ishlatilgan (shu bobning 16–oyatida ham bor).

11:3 *Mispax yeri* — shu bobning 8–oyatidagi Mispax vodiysi nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin. Mazkur oyatdagi Mispax 15:38 va 18:26 da Mispax deb atalgan ikkala joydan boshqa. Eski Ahdda bir nechta joy Mispax degan nom bilan yuritilgan.

11:5 *Mirom* — Jalila ko‘lidan qariyb 13 kilometr shimoli–g‘arbda joylashgan shahar nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin.

11:8 *…Buyuk Sidon va Misrafo‘t–Mayimgacha…Mispax vodiysigacha…* — bu uchta joy Miromdan qariyb 30-55 kilometr shimolda joylashgan.

11:13 *tepalik* — asrlar davomida shaharlar qurilib, vayron bo‘lgan, vayronalar ustiga yangi shaharlar barpo qilinavergan, shu tariqa tepaliklar hosil bo‘lib boravergan. Bu o‘rindagi ibroniycha so‘z shunday tepaliklarga ishora qiladi. Isroil xalqi bu tepaliklar ustida qurilgan shaharlarni qo‘lga kiritib, u yerlarda yashagan bo‘lishi mumkin (Qonunlar 6:10-11 ga qarang).

11:16 *Nagav cho‘li* — 10:40 izohiga qarang.

11:16 *Go‘shen yerlari* — 10:41 izohiga qarang.

11:17 *Seir* — Edom yurtiga qarashli bo‘lgan tog‘li yerlar.

11:19 *Givondagi Xiv xalqidan tashqari…* — 9:3-15 oyatlarga va 9:7 ning izohlariga qarang.

11:21 *Onoq avlodi* — Isroil xalqidan avval Kan’onda yashagan, gavdasi ulkan, kuchli jangchilari bilan mashhur bo‘lgan xalq (Sahroda 13:33-34, Qonunlar 1:28, 2:10-11, 20-21, 9:1-2 ga qarang).

11:22 *G‘azo, Gat va Ashdod shaharlari* — bu shaharlar Filistiyada, O‘rta yer dengizi yaqinida joylashgan edi.

12:1 *Iordan vodiysi* — ibroniycha matnda *Araba* (shu bobning 3, 8–oyatlarida ham bor). Araba umumiy geografik nom bo‘lib, bu oyatda Iordan vodiysiga nisbatan ishlatilgan.

12:2 *Isroil xalqi mag‘lub qilgan shohlardan biri…Sixo‘n edi* — Sahroda 21:21-31, Qonunlar 2:26-37 ga qarang.

12:3 *Jalila ko‘li* — ibroniycha matnda *Keneret ko‘li*, o‘sha vaqtda Jalila ko‘li va uning atrofidagi yerlar shu nom bilan ham atalardi.

12:3 *O‘lik dengiz* — ibroniycha matnda *Araba dengizi, ya’ni Tuz dengizi*. Araba umumiy geografik nom bo‘lib, bu oyatda O‘lik dengiz joylashgan cho‘l yerlarni bildiradi.

12:4 *Mag‘lub bo‘lgan Bashan shohi O‘g…* — Sahroda 21:33-35, Qonunlar 3:1-11 ga qarang.

12:4 *Rafa xalqi* — Isroil xalqidan avval Kan’onda yashagan, gavdasi ulkan, kuchli jangchilari bilan mashhur bo‘lgan xalq (Qonunlar 2:10-11, 20-21, 3:11 ga qarang).

12:7 *Seir* — 11:17 izohiga qarang.

12:8 *Nagav cho‘li* — 10:40 izohiga qarang.

12:23 *Nafo‘t–Do‘r* — ibroniycha matnda bu nomning boshqa varianti *Nafat–Do‘r*.

12:23 *Gilgal* — ibroniycha matndan. Qadimiy yunoncha tarjimada *Jalila*.

13:3 *Shixor irmog‘i* — Sinay yarim orolining shimoli–sharqidagi Arish soyligi yoki Nil daryosining sharqiy irmog‘i nazarda tutilgan (yana 15:4, 47, Ibtido 15:18 va Sahroda 34:5 ga qarang).

13:3 *Avim xalqi* — qadimda O‘rta yer dengizi bo‘yida istiqomat qilgan xalq (Qonunlar 2:23 ga qarang). Filist xalqi Avim xalqining yurtini bosib olgandan keyin, ularning omon qolganlari Filistlardan janubda o‘rnashgan edi.

13:4 *Ofoq* — 12:18 da aytib o‘tilgan Ofoqdan boshqa shahar. Mazkur oyatdagi Ofoq hozirgi Bayrutdan qariyb 40 kilometr shimolda joylashgan bo‘lishi mumkin.

13:5 *Gabol* — O‘rta yer dengizi bo‘yidagi Finikiyaga qarashli shahar bo‘lib, Sidon shahridan shimolda joylashgan edi.

13:5 *Levo–Xomat* — yoki *Xomat dovoni*.

13:7 *Manashe qabilasining yarmi* — Iordan daryosining g‘arb tomonidagi Kan’on yurtida o‘rnashgan qabilaning yarmi nazarda tutilgan (22:7 ga qarang). Qabilaning ikkinchi yarmi Iordan daryosining sharq tomonida o‘rnashgan edi (shu bobning 8, 29-31–oyatlariga va 1:12-14 ga qarang).

13:9 *soylik* — ikki adir oralig‘idagi pastlik. Ba’zi soyliklar vodiy kabi keng bo‘lardi. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi SOYLIK so‘ziga qarang.

13:11-12 *Rafa xalqi* — 12:4 ning ikkinchi izohiga qarang.

13:14 *Egamiz aytganday…Levi qabilasining ulushidir* — Qonunlar 18:1-2 ga qarang.

13:22 *Balom* — Sahroda 22:1-24:25 ga qarang.

13:25 *Rabba shahri* — Ommon yurtining poytaxti.

13:25 *Aror shahri* — shu bobning 16–oyatida aytib o‘tilgan Arordan boshqa shahar.

13:27 *Jalila ko‘li* — ibroniycha matnda *Keneret ko‘li*, o‘sha vaqtda Jalila ko‘li va uning atrofidagi yerlar shu nom bilan ham atalardi.

13:33 *“Men O‘zim sizlarning ulushingiz bo‘laman”, deb va’da bergan edi* — Xudo Levi qabilasining muhtojliklarini qondirishga va’da bergan edi. Xudoning amriga ko‘ra, Levi qabilasi Isroil xalqining Egamizga keltirgan qurbonligu nazrlaridan ular yeyish

huquqiga ega edilar (Qonunlar 18:1-2 ga qarang). Xalqdan yig‘ilgan ushr ham bu qabila vakillariga tegishli edi (Qonunlar 14:28-29 ga qarang), shuningdek, ularga ayrim shaharlar va shahar atrofidagi yaylovlar berilgan edi (21:1-3 ga qarang).

14:1 *Elazar* — Horunning o‘g‘li, oliy ruhoniylik xizmatini davom ettirgan edi (Sahroda 20:22-29 ga qarang).

14:2 *...qur’a tashlab belgilandi* — qur’a tashlashda yog‘och bo‘laklari yoki toshlar ishlatilgan bo‘lib, shu orqali Xudoning xohish–irodasi aniqlangan. Ba’zan odamlar qur’a tashlab, Xudodan biror ishni qanday yoki qachon qilish kerakligini so‘rashgan.

14:3-4 *Yusufning ikkala o‘g‘li...Levi qabilasi hech qanday ulush olmadi* — Isroil xalqining 12 qabilasi Yoqubning 12 o‘g‘lidan kelib chiqqan. Bularning orasida Levi qabilasi ulush qilib yer olmagandi (13:14 ga qarang). Biroq Yusufning ikkala o‘g‘li — Efrayim va Manashe ikki ulush yer olganlari uchun, Isroil xalqiga hammasi bo‘lib 12 ulush yer, ya’ni 2,5 ulush yer Iordan daryosining sharqidan va 9,5 ulush yer Iordanning g‘arbidan bo‘lib berilgandi.

14:6 *Xolib* — Muso Kan’on yurtiga yuborgan o‘n ikki ayg‘oqchidan biri (Sahroda 13–bobga qarang).

14:9 *...Muso qasam ichib menga shunday degan edi...* — Qonunlar 1:34-36 ga qarang.

14:12 *Egamiz o‘sha kuni va’da qilgan qirlar* — Sahroda 14:24, 30 ga qarang.

14:12 *Onoq avlodi* — 11:21 izohiga qarang.

14:13 *Xevron shahri* — 10:3 izohiga qarang.

14:15 *Xirat–Arba* — ibroniychadagi ma’nosi *Arba shahri*.

15:2 *O‘lik dengiz* — ibroniycha matnda *Tuz dengizi* (shu bobning 5–oyatida ham bor).

15:3 *Chayonlar dovoni* — ibroniycha matnda *Akrabim dovoni*, ma’nosi *chayonlar dovoni*.

15:4 *Misr chegarasidagi irmoq* — 13:3 ga va o‘sha oyatning birinchi izohiga qarang.

15:7 *Davir* — shu bobning 15–oyatida hamda 10:38-39 da aytib o‘tilgan Davirdan boshqa shahar.

15:7 *Gilgal* — 4:19 da aytib o‘tilgan Yerixo yonidagi Gilgal emas.

15:9 *hozirgi paytda* — shu kitob yozilgan vaqtga ishora.

15:10 *Seir tog‘lari* — 11:17 izohiga qarang.

15:10 *Bayt–Shamash shahri* — 19:41 da aytib o‘tilgan Ir–Shamashning yana bir nomi bo‘lishi mumkin. O‘sha davrda Bayt–Shamash nomli yana ikkita shahar bor edi (19:22, 38 ga qarang).

15:12 *O‘rta yer dengizi* — ibroniycha matnda *Buyuk dengiz* (shu bobning 47–oyatida ham bor).

15:13 *Hozirgi paytda* — shu kitob yozilgan vaqtga ishora.

15:13 *Xirat–Arba* — ibroniychadagi ma’nosi *Arba shahri*.

15:13 *Onoq avlodi* — 11:21 izohiga qarang.

15:15 *Davir shahri* — Xevron shahridan qariyb 16 kilometr janubi–g‘arbda joylashgan.

15:18 *...qiz O‘tniyolga: “Keling, otamdan...* — ibroniycha matndan. Qadimiy yunoncha

tarjimaning ba’zi qo‘lyozmalarida *…O‘tniyol qizga: “Kel, otangdan….*

15:19 *Nagav cho‘li* — 10:40 izohiga qarang.

15:19 *tepadagi va pastdagi buloqlar* — tepadagi buloq — tog‘dagi buloqqa ishora. Echkilarni sug‘orish uchun o‘sha buloq suvidan foydalanilgan. Pastdagi buloq — tekislikdagi buloqqa ishora. Yer ostidan suv chiqib, hovuzni hosil qilgan. Bu buloq suvidan donlarni sug‘orish uchun foydalanilgan.

15:47 *Misr chegarasidagi irmoq* — 13:3 ga va o‘sha oyatning birinchi izohiga qarang.

15:50 *Eshtamo‘va* — ibroniycha matnda bu nomning boshqa varianti *Eshtamo‘x*. Uning Eshtamo‘va degan shakli 21:14 dan olingan.

15:63 *…Yobus xalqini Quddusdan haydab chiqara olmadi* — Isroil xalqi Quddusni shoh Dovud davrida qo‘lga kiritgan (2 Shohlar 5:6-7 ga qarang), lekin shundan keyin ham butun Yobus xalqini shahardan haydab chiqarmagandi (2 Shohlar 24:16 ga qarang).

15:63 *Bugungacha* — shu kitob yozilgan vaqtga ishora.

16:1 *Yusuf avlodlari* — Yusufning ikkala o‘g‘li — Efrayim va Manashening avlodlariga ishora (14:3-4 ga qarang).

16:2 *…Baytil, ya’ni Luzdan ham o‘tib…* — qadimiy yunoncha tarjimadan (yana 18:13 ga qarang). Ibroniycha matnda *…Baytildan Luzga o‘tib….*

16:2 *Otro‘t–Adar* — ibroniycha matnda *Otro‘t*. *Otro‘t — Otro‘t–Adar*ning qisqa shakli.

16:10 *bugungi kungacha* — shu kitob yozilgan vaqtga ishora.

17:4 *Elazar* — 14:1 izohiga qarang.

17:4 *“Egamizning O‘zi…Musoga amr qilgan”* — Sahroda 27:1-11, 36:1-12 ga qarang.

17:7 *Tappux bulog‘i* — ibroniycha matnda *En–Tappux*, ma’nosi *Tappux bulog‘i*.

17:14 *Yusuf avlodlari* — bu o‘rinda Efrayim qabilasi va Manashe qabilasining yarmi nazarda tutilgan. Ular Iordan daryosining g‘arb tomonida o‘rnashgan edilar. Shu bobning 17–oyatiga va 16:1-4 ga qarang.

17:15 *Rafa* — 12:4 ning ikkinchi izohiga qarang.

17:16 *…temirdan yasalgan jang aravalari…* — bu aravalarning ba’zi qismlari temirdan yasalgan edi, xolos.

18:1 *Shilo‘ shahri* — Quddusdan qariyb 32 kilometr shimolda joylashgan bo‘lib, Isroil xalqi sajda qiladigan asosiy joyga aylanib borayotgan edi.

18:5 *Yusuf avlodlari* — 17:14 izohiga qarang.

18:6 *…Egamiz Xudo oldida…qur’a tashlayman* — 14:2 izohiga qarang.

18:11 *Yusuf avlodlari* — 17:14 izohiga qarang.

18:16 *Yobus* — Quddusning qadimgi nomi (shu bobning 28–oyatiga qarang).

18:18 *Iordan vodiysi* — ibroniycha matnda *Araba*. Araba umumiy geografik nom bo‘lib, bu oyatda Iordan vodiysiga nisbatan ishlatilgan.

18:19 *O‘lik dengiz* — ibroniycha matnda *Tuz dengizi*.

18:28 *Xirat–Yo‘rim* — qadimiy yunoncha, suryoniycha va lotincha tarjimalardan.

Ibroniycha matnda *Xirat*. *Xirat* — *Xirat–Yo‘rim*ning qisqa shakli bo‘lishi mumkin.

19:1 *Qur’a bo‘yicha…* — 14:2 izohiga qarang.

19:2 *…Bersheba (ya’ni Sheba)…* — ibroniycha matnda *…Bersheba, Sheba…*. Shu bobning 6–oyatida berilgan ma’lumotga ko‘ra, hammasi bo‘lib 13 shahar qayd etilgan (yana 1 Solnomalar 4:28-30 ga qarang). Shunga binoan, Sheba — Bershebaning qisqa shakli bo‘lishi mumkin.

19:8 *Nagav cho‘li* — 10:40 izohiga qarang.

19:13 *…Rimmon shahrigacha borib, u yerdan Niyox shahri tomon buriladi* — yoki *…Rimmon, Mifo‘var va Niyox shaharlarigacha boradi*.

19:15 *Baytlahm* — Quddusdan janubdagi mashhur Baytlahmdan boshqa shahar. Mazkur oyatdagi Baytlahm Isroilning shimolida joylashgan.

19:22 *Tovur tog‘idan boshlanib…Tovur* — ibroniycha matnda *Tovur* so‘zi bir marta ishlatilgan. Lekin bu oyatda *Tovur* so‘zi ham toqqa, ham tog‘ etagidagi shaharga nisbatan ishlatilgan bo‘lishi mumkin. Tovur tog‘i Issaxor hududining shimoliy chegarasidagi bir joy edi.

19:22 *Bayt–Shamash* — shu bobning 38–oyatida hamda 15:10 da aytib o‘tilgan Bayt–Shamashdan boshqa shahar.

19:28 *Abdo‘n* — ibroniycha matnda bu nomning boshqa varianti *Ebron*. Uning Abdo‘n degan shakli 21:30 dan olingan.

19:29 *Rama* — mazkur oyatdagi Rama shahri shu bobning 36–oyatida va 18:25 da Rama deb nomlangan ikki shahardan boshqa shahar.

19:29 *Maxalav, Axsib* — ibroniycha matnda bu so‘zlarning ma’nosi bahsli. Ko‘p olimlarning sharhlashicha, bu so‘zlar ikki shaharning nomlari bo‘lgan.

19:30 *Ummo* — Hakamlar 1:31 da aytib o‘tilgan Akko‘ shahrining yana bir nomi bo‘lishi mumkin.

19:34 *Iordan daryosi* — qadimiy yunoncha tarjimadan. Ibroniycha matnda *Iordan daryosi bo‘yidagi Yahudo*. Biroq Yahudo hududi Isroilning janubida, Naftali hududidan ancha uzoqda joylashgan edi. Ibroniycha matndagi *Yahudo* so‘zi Isroilning shimolida, Iordan daryosining g‘arbiy qirg‘og‘ida joylashgan shaharni bildirgan bo‘lsa kerak.

19:36 *Rama* — mazkur oyatdagi Rama shahri shu bobning 29–oyatida va 18:25 da Rama deb nomlangan ikki shahardan boshqa shahar.

19:38 *Bayt–Shamash* — shu bobning 22–oyatida hamda 15:10 da aytib o‘tilgan Bayt–Shamashdan boshqa shahar.

19:47-48 *Layish* — ibroniycha matnda *Lashem*, Layishning yana bir nomi.

19:47-48 *…Layish shahriga hujum qildi* — Hakamlar 18–bobga qarang.

19:51 *Elazar* — 14:1 izohiga qarang.

19:51 *Shilo‘* — 18:1 izohiga qarang.

19:51 *…Egamizning huzurida qur’a tashlab…* — 14:2 izohiga qarang.

20:2 *Muso orqali sizlarga buyurganimday…* — Sahroda 35:9-34, Qonunlar 19:1-13 ga qarang.

20:3 *marhumning qasos olmoqchi bo‘lgan qarindoshlari* — Sahroda 35:16-28 ga qarang.

20:4 *...shahar darvozasi oldida...* — qadimgi paytlarda oqsoqollar va obro‘li odamlar shahar darvozasi oldida yig‘ilib, hakamlik vazifasini bajarardilar. U yerda turli masalalarni ko‘rib chiqib, hal qilardilar.

20:6 *Qotil aybsiz deb topilgandan keyin...* — agar odam qotillikda aybdor deb topilsa, panoh shaharning aholisi qotilni jabr ko‘rgan qarindoshlarning qo‘liga topshirib, uni o‘ldirib yuborishlariga yo‘l qo‘yib berishlari kerak edi (Qonunlar 19:11-13 ga qarang).

21:1 *Elazar* — 14:1 izohiga qarang.

21:2 *Shilo‘ shahri* — 18:1 izohiga qarang.

21:2 *...Egamiz Musoga amr qilgan edi* — Sahroda 35:1-8 ga qarang.

21:4 *Qur’a* — 14:2 izohiga qarang.

21:4 *Qohot* — Qohot, Gershon (shu bobning 6–oyatiga qarang) va Marori (shu bobning 7–oyatiga qarang) Levining o‘g‘illari edi (Chiqish 6:16 ga qarang).

21:4 *Horun* — Qohotning nevarasi (Chiqish 6:18-20 ga qarang).

21:11 *Xirat–Arba* — ibroniychadagi ma’nosi *Arba shahri*.

21:11 *Onoq avlodi* — 11:21 izohiga qarang.

21:12 *...Xolibga mulk qilib berilgan edi* — 14:6-14 ga qarang.

21:25 *Bilom* — ibroniycha matnda bu nomning boshqa varianti *Gat–Rimmon*. Uning Bilom degan shakli 1 Solnomalar 6:70 dan olingan.

21:36 *Yaxaz* — ibroniycha matnda bu nomning boshqa varianti *Yaxzo*.

22:9 *Shilo‘* — 21:2 oyatga va 18:1 izohiga qarang.

22:13 *Elazar* — 14:1 izohiga qarang.

22:16 *Nima uchun...o‘zingizga qurbongoh qurdingiz?* — Xudo Muso orqali Isroil xalqiga qurbongoh va sajdaga oid amrlarni bergan edi. Isroil xalqi Kan’on yurtida o‘rnashgandan so‘ng o‘sha amrlarga rioya qilgan holda, hamma qurbonliklarni faqat Xudo belgilagan joyda keltirishi kerak edi (Qonunlar 12:5-14 ga qarang). O‘sha davrda qurbonliklar keltiriladigan yagona joy Shilo‘da o‘rnatilgan Muqaddas chodir edi (shu bobning 19–oyatiga hamda 18:1 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang).

22:17 *Piyor tog‘ida qilgan gunohimiz...* — Sahroda 25:1-9 ga qarang.

22:19 *...Egamizga yoki bizga qarshi bosh ko‘tarmanglar* — yoki *...Egamizga qarshi bosh ko‘tarib, bizni ham isyonkor qilib qo‘ymanglar*. Isroil xalqining bir qismi Egamizga qarshi bosh ko‘targanda, butun xalq jazoga tortilardi (shu bobning 18, 20–oyatlariga qarang).

22:20 *...Oxun Egamizga xiyonat qilib...* — 7:1-26 ga qarang.

22:20 *bag‘ishlangan narsalar* — 6:17-20 oyatlarga va 6:16 izohiga qarang.

22:34 *...qurbongohga Guvoh degan nom berishdi* — ba’zi ibroniy qo‘lyozmalaridan va suryoniycha tarjimadan. Ibroniycha matnda *...qurbongohga nom berishdi*.

23:4 *O‘rta yer dengizi* — ibroniycha matnda *Buyuk dengiz*.

23:6 *Tavrot kitobi* — 1:8 izohiga qarang.

24:1 *Shakam* — Quddusdan qariyb 50 kilometr shimolda, Isroil tepaliklarida joylashgan shahar. Shakam Isroil xalqi uchun muhim tarixiy yodgorlik bo‘lib xizmat qilardi (Ibtido 12:6-7, 33:18-20, 35:2-5 ga qarang).

24:4 *Seir tog‘lari* — Edom yurtining yana bir nomi Seir edi. Isroil xalqi Yoqubdan, Edom xalqi esa Yoqubning akasi Esovdan kelib chiqqan edi.

24:6 *Qizil dengiz* — ibroniycha matnda *Yom–Suf*, ma’nosi *Qamish dengizi*. 2:10 izohiga qarang.

24:9 *…Boloq…Balomni chaqirtirdi* — Sahroda 22:1-24:25 ga qarang.

24:12 *Ikki Amor shohi* — ya’ni Sixo‘n va O‘g (Sahroda 21:21-35, Qonunlar 2:24-3:11 ga qarang).

24:12 *Ikki Amor shohini…quvib yubordim* — yoki *Men Ikki Amor shohini quvish uchun sizlardan oldin qovoq arilarni yubordim*.

24:26 *sajdagoh* — Xudoga sajda qilish uchun ajratilgan kichik bir ochiq joy bo‘lsa kerak. Ibrohim shu joyda Egamizga atab qurbongoh qurgan bo‘lishi mumkin (Ibtido 12:6-7 ga qarang), keyinchalik Yoqub o‘z xonadonini butlardan tozalab, ularni xuddi shu eman daraxtining tagiga ko‘mgan bo‘lishi mumkin (Ibtido 35:2-5 ga qarang).

24:30 *Bu shahar unga ulush qilib berilgan bo‘lib…* — 19:49-50 ga qarang.

24:32 *…Yusufning suyaklarini o‘zlari bilan olgan edi* — Ibtido 50:24-26 va Chiqish 13:19 ga qarang.

24:32 *yuz bo‘lak kumush* — ibroniycha matnda *yuz kisito*. Bu pul birligining qiymati va og‘irligi haqidagi ma’lumot saqlanib qolmagan. Qadimgi paytlarda ma’lum vazndagi kumush bo‘laklari odatda pul birligi sifatida ishlatilgan.

24:32 *Yoqub bu yerni…sotib olgan edi* — Ibtido 33:19 ga qarang.

HAKAMLAR

KITOBI

Kirish

Hakamlar kitobi bizni Isroil xalqining Xudodan yuz o‘girgan va butlarga sig‘ingan davri bilan tanishtiradi. Mazkur kitobda Yoshuaning o‘limidan so‘ng monarxiya tuzumiga asoslangan davlat yuzaga kelguncha ro‘y bergan turli voqealar bayon qilinadi. Kitobda biz turli hikoyalarni o‘qib, ularning mag‘zini chaqqanimizda, Xudo Isroil xalqining yagona Hukmdori ekanini yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Isroil xalqi Kan’on yurtini zabt etganda, u yerda yashayotgan xalqlarni haydab yubormaydi, shu tariqa Xudoga itoatsizlik qiladi. Ular Xudodan yuz o‘girib, o‘sha butparast xalqlarning soxta xudolariga ko‘ngil bog‘laydilar. Oqibatda, Xudo Isroil xalqini butparastligi uchun jazolab, jazo sifatida ularni yon–atrofda yashovchi Kan’on xalqlariga tobe qilib qo‘yadi. Jabr–zulm ostida qolgan Isroil xalqi Xudoga iltijo qilib, Undan yordam so‘raydi. Shunda Xudo O‘z xalqini ozod qilish uchun ularga birin–ketin yo‘lboshchilarni yuboradi. Bu yo‘lboshchilar hakamlar deb ataladi. Hakamlar boshchiligida Isroil xalqi g‘animlari ustidan g‘alaba qozonadi. So‘ng ular uchun farovonlik davri boshlanadi. Isroil xalqi hakamlarning hayotligi davrlarida Xudoga sodiq bo‘ladi. Lekin har bir hakamning vafotidan keyin, ular yana Xudodan yuz o‘girishadi. Bunday hodisalar qayta–qayta takrorlanaveradi.

Odatda hakamlar bir nechta qabilaga yo‘lboshchilik qilishardi, lekin ayrimlari butun xalqni boshqarishardi. O‘sha paytda Isroil xalqi tarqoq qabilalardan iborat bo‘lib, hali yaxlit bir xalq deb hisoblanmasdi. Ularning shohi bo‘lmagani uchun, o‘sha davrda “har bir odam bilganini qilar edi” (21:25 ga qarang). Lekin odamlar yagona Xudoga sajda qilishni o‘rganishlari lozim edi, shuning uchun ular har safar begona xudolarga sig‘inishni boshlaganlarida, Xudo ularni jazolardi.

1–BOB

Yahudo va Shimo‘n qabilalari Odonivazaxni qo‘lga oladilar

1 Yoshuaning o‘limidan* so‘ng, Isroil xalqi Egamizdan: “Kan’on xalqiga qarshi jang
qilish uchun oramizdan kim birinchi bo‘lib chiqsin?” deb so‘radi. 2 “Yahudo qabilasi
chiqsin, — dedi Egamiz. — Men bu yurtni ularning qo‘liga beryapman.” 3 Shunda Yahudo
qabilasi qardoshi bo‘lgan Shimo‘n qabilasiga shunday dedi: “Kelinglar, birgalikda bizga
ulush bo‘lib tushgan yerga boraylik. O‘sha yerda birgalashib Kan’on xalqiga qarshi jang
qilaylik. Keyin biz ham sizlarga tushgan ulushga ergashib boramiz.” Shunday qilib,
Shimo‘n qabilasi ular bilan birga bordi. 4 Yahudo qabilasi jangga chiqdi. Kan’on va Pariz
xalqlarini Egamiz ularning qo‘liga bergani uchun, ular Bazax shahrida o‘n mingta
dushmanni qirib tashlashdi. 5 O‘sha yerda shoh Odonivazaxga duch kelishdi, unga hujum
qilib, Kan’on va Pariz xalqlarini mag‘lub etishdi. 6 Odonivazax qochdi, ammo ular uning
ketidan quvib, qo‘lga olishdi va oyoq–qo‘llarining bosh barmoqlarini chopib tashlashdi.
7 Shunda Odonivazax dedi: “Oyoq–qo‘llarining bosh barmoqlari chopib tashlangan
yetmishta shoh dasturxonimdan tushgan ushoqlarni terib yurishar edi*. Men o‘sha

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

shohlarning boshiga solgan ne–ne kunlarni Xudo qaytarib o‘z boshimga soldi.” Isroil odamlari Odonivazaxni Quddusga olib borishdi, u o‘sha yerda jon berdi.

Yahudo qabilasi Quddus bilan Xevronni qo‘lga kiritadi

8 Keyin Yahudo qabilasi Quddusga hujum qilib, shaharni qo‘lga kiritdi*. Ular u
yerdagilarni qilichdan o‘tkazib, shaharga o‘t qo‘yishdi. 9 So‘ng esa qirlarda, g‘arbdagi qir
etaklarida va Nagav cho‘lida yashovchi Kan’on xalqiga qarshi jang qilish uchun janubga
qarab yurishdi. 10 Yahudo qabilasi Xevron shahrida* istiqomat qilgan Kan’on xalqiga
hujum qilib, Sheshay, Oximan va Talmay qo‘shinlarini yakson qildi. Xevronning eski
nomi Xirat–Arba edi.

O‘tniyol Davir shahrini qo‘lga kiritadi

11 U yerdan Yahudo odamlari Davir shahriga hujum qilish uchun yo‘lga tushishdi.
Davirning eski nomi Xirat–Safar edi. 12 Shunda Xolib*: “Xirat–Safarga hujum qilib, qo‘lga
kiritgan kishiga qizim Axsani beraman”, — dedi. 13 O‘tniyol shaharni qo‘lga kiritdi, Xolib
esa unga qizi Axsani uzatdi. O‘tniyol — Xolibning jiyani, aniqrog‘i, Xanaz ismli kenja
ukasining o‘g‘li edi. 14 To‘ydan keyin qiz O‘tniyolga: “Keling, otamdan* bir dala so‘rab
olaylik”, deb turib oldi. Xolib eshakdan tushayotgan qiziga: “Ha, qizim, biron–bir istaging
bormi?” — deb so‘radi. 15 “Menga bir sovg‘a qilsangiz, — dedi Axsa. — Siz menga Nagav
cho‘lidagi yerni berdingiz, endi suv buloqlarini ham hadya eting.” Shunday qilib, Xolib
unga tepadagi va pastdagi buloqlarni berdi.

Yahudo va Benyamin qabilalarining g‘alabalari

16 Yahudo xalqi palma shahri Yerixoni* tark etdi. Musoning qaynatasi avlodidan
bo‘lgan Xayin xalqi Yahudo xalqiga ergashib, Yahudo cho‘liga yo‘l oldi. Ular Arod
shahridan janub tomonda joylashib, u yerda mahalliy xalq orasida o‘rnashib oldilar.
17 Yahudo va Shimo‘n qabilalari birgalikda Zafat shahrida yashaydigan Kan’on xalqiga
hujum qilib, shaharni yer bilan yakson qilishdi. Shuning uchun bu shahar Xo‘rmax* deb
atalgan. 18 Yahudo qabilasi G‘azo, Ashqalon, Exron shaharlarini* va ularning atrofidagi
yerlarni qo‘lga kiritdi. 19 Egamizning O‘zi Yahudo qabilasi bilan bo‘lgani uchun, ular
qirlarni egallab oldilar. Ammo tekislikda yashaydigan xalqlarni o‘z yeridan quva
olmadilar, chunki o‘sha xalqlarning temir jang aravalari* bor edi. 20 Muso aytganidek*,
Xevron shahri Xolibga berildi. Xolib u yerdan Onoq avlodidan kelib chiqqan uchta
urug‘ni* quvib chiqardi. 21 Benyamin qabilasi esa Quddusda istiqomat qilgan Yobus
xalqini haydab chiqarmadi. Shu sababdan Yobus xalqi bugunga qadar* Quddusda,
Benyamin avlodlari orasida yashab kelmoqda.

Efrayim va Manashe qabilalari Baytilni bosib olishadi

22 Yusufning ikkala o‘g‘li — Efrayim va Manashedan bino bo‘lgan qabilalar ham
Baytil shahriga* hujum qilmoqchi bo‘lib, yo‘lga chiqdilar. Egamiz ular bilan edi. 23 Baytil
haqida ko‘proq ma’lumot yig‘ish uchun ular o‘z ayg‘oqchilarini shahar tomon
yubordilar. Baytil shahrining eski nomi Luz edi. 24 Ayg‘oqchilar shahardan chiqib
kelayotgan bir odamni ko‘rib, unga: “Bizga shaharga olib kiradigan yashirin kirish
joyini* ko‘rsat! Buning evaziga joningni saqlab qolamiz!” — dedilar. 25 O‘sha odam
ularga yo‘l ko‘rsatdi. Efrayim va Manashe lashkarlari shahar aholisini bitta qo‘ymay
qilichdan o‘tkazishdi. Yo‘l ko‘rsatgan odamni esa butun oilasi bilan birga qo‘yib
yuborishdi. 26 O‘sha odam Xet xalqining yurtiga* borib bir shahar qurdi, uning nomini

esa Luz deb qo‘ydi. O‘sha shahar bugunga qadar shu nom bilan ataladi.

Isroil xalqi quvib chiqarmagan o‘zga xalqlar

27 Manashe qabilasi Bayt–Shan, Tanax, Do‘r, Yiblayom, Magido‘ shaharlari va
ularning qishloqlarida yashagan Kan’on xalqini haydab chiqarmadi, ular o‘sha yerlarda
yashayverdilar. 28 Vaqti kelib, Isroil xalqi kuchini yig‘ib oldi, shunda Kan’on xalqini o‘ziga
bo‘ysundirib, qarol bo‘lib xizmat qilishga majbur qildi. Ammo shunda ham o‘z yeridan
haydab chiqarmadi.
29 Efrayim qabilasi ham Gezer shahridagi Kan’on xalqini quvib chiqarmadi. Kan’on
xalqi Gezerda ularning orasida yashayverdi.
30 Zabulun qabilasi ham Xitro‘n va Nahalil shaharlarida istiqomat qilgan Kan’on
xalqini haydab chiqarmadi. Kan’on xalqi Zabulun qabilasi bilan birga yashab, ularga
qarol bo‘lib xizmat qilishga majbur bo‘ldi.
31 Osher qabilasi ham Akko‘, Sidon, Axlob, Axsib, Xelba, Ofiq va Rexob shaharlarida
yashaydigan Kan’on xalqini yeridan haydab chiqarmadi. 32 Ular o‘sha yurt aholisini
haydab chiqarmaganlari uchun Kan’on xalqi bilan birga yashadilar.
33 Naftali qabilasi ham Bayt–Shamash va Bayt–Onot shaharlarining aholisini haydab
chiqarmay, yerli xalq — Kan’on xalqi orasida yashab qoldi. Lekin ular o‘sha shaharlar
aholisini o‘ziga bo‘ysundirib, qarol bo‘lib xizmat qilishga majbur qildilar.
34 Biroq Amor xalqlari* Dan qabilasini siqib, qirlarga chiqib ketishga majbur qildilar,
vodiyga tushishlariga yo‘l qo‘ymadilar. 35 Amor xalqlari Xar–Xares, Oyjavlon va Shalbim
shaharlarida yashayverdilar. Lekin Efrayim va Manashe qabilalari ularga o‘z hukmini
o‘tkazib, qarol bo‘lib xizmat qilishga majbur qildilar. 36 Amor xalqlari yashagan
hududning chegarasi Chayonlar dovonidan* Selagacha cho‘zilgan va u yerdan shimolga
qarab ketgan edi.

2–BOB

Egamizning farishtasi Boximda

1 Egamizning farishtasi Gilgaldan* Boximga kelib shunday dedi:
— Men sizlarni Misrdan olib chiqdim. Ont ichib, ota–bobolaringizga beraman degan
yurtga sizlarni olib kirdim. Men: “Sizlar bilan tuzgan ahdimni hech qachon buzmayman”,
degan edim. 2 Sizlarga: “Bu yurt xalqlari bilan ahdlashmanglar, ularning qurbongohlarini
vayron qilinglar”, deb aytmaganmidim?! Lekin sizlar amrimga itoat qilmay, teskarisini
qildingizlar. 3 Bunday qilganingiz uchun yurtingizda yashab yurgan bu xalqlarni Men
endi haydab chiqarmayman. Ular sizlarga dushman bo‘lib*, ularning xudolari sizlarga
tuzoq bo‘ladi.
4 Egamizning farishtasi bu so‘zlarni aytgach, butun Isroil xalqi faryod ko‘tardi.
5 Shunday qilib, ular o‘sha yerni Boxim* deb atadilar va Egamizga qurbonliklar
keltirdilar.

Yoshua vafot etadi

6 Yoshua Isroil xalqini tarqatib yuborgandan so‘ng, har bir odam o‘ziga tushgan yerni
mulk qilib olish uchun yo‘lga tushgandi. 7 Yoshua davrida xalq Egamizga xizmat qilar
edi. Ular Yoshuaning o‘limidan so‘ng, Egamiz Isroil uchun qilgan buyuk ishlarini ko‘rgan
oqsoqollar davrida ham Egamizga itoat qilishar edi. 8 Egamizning quli Nun o‘g‘li Yoshua

110 yoshida olamdan o‘tdi. 9 Uni Gash tog‘ining shimolida joylashgan Efrayim qirlaridagi
Timnat–Seraxda*, o‘zi ulush qilib olgan yerda dafn qilishdi. 10 Butun keksa avlod ham
olamdan o‘tdi. Isroil xalqining yosh avlodi esa Egamizni tan olmadi, Uning Isroil xalqi
uchun qilgan buyuk ishlarini bilmadi.

Isroil xalqi Egamizga sajda qilmay qo‘yadi

11 Isroil xalqi Egamizning oldida qabihliklar qildi, ular Baal degan xudoning
tasvirlariga sig‘ina boshlashdi. 12 Egamiz ularni Misrdan olib chiqqan bo‘lsa–da, ular
ota–bobolarining Xudosidan yuz o‘girishdi. Boshqa xudolarga — yon–atrofda yashovchi
xalqlarning xudolariga ergashishdi. Ularga sajda qilib, Egamizning qahrini keltirishdi.
13 Isroil xalqi Egamizdan yuz o‘girib, Baalga va Ashtaretning tasvirlariga sajda qilayotgan
edi. 14 Bundan g‘azablangan Egamiz ularni bosqinchilar qo‘liga berib, talon–taroj qildirdi
va yon–atrofdagi g‘animlarga taslim qildi. Bundan buyon Isroil xalqi dushmanlariga
qarshilik ko‘rsata olmas edi. 15 Isroil xalqi qayerda jang qilmasin, Egamiz
ogohlantirganidek, ularning boshlariga falokat keltirish uchun har safar ularga qarshi
O‘zi chiqar edi. Isroil xalqi og‘ir ahvolda qolgan edi.

16 Egamiz ularni bosqinchilar qo‘lidan ozod qilish uchun hakamlarni* yubordi.
17 Lekin ular hatto hakamlariga quloq solmadilar. Egamizga bevafolik qilib, boshqa
xudolarga sajda qilaverdilar. Ular Egamizning amrlariga itoat qilgan ota–bobolariga
o‘xshamay, tez orada ajdodlari yurgan haq yo‘ldan ozdilar. 18 Egamiz ularga hakam
yuborar ekan, har bir hakam bilan O‘zi bo‘lar edi, o‘sha hakam davrida xalqini
dushmanlardan xalos qilardi. Chunki zolim va zo‘ravonlarning dastidan noligan xalqqa
Egamizning rahmi kelar edi. 19 Ammo hakam olamdan ko‘z yumgach, ular yana eski
qilmishlariga qaytishar edi. Ota–bobolaridan ham battar gunohlar qilib, boshqa
xudolarga sajda qilishar, ularga sig‘inishar edi. Bu odatlarining birontasini ham
qoldirmay, qilmishlarini o‘jarlik bilan davom ettirishar edi. 20 Isroil xalqidan qattiq
g‘azablangan Egamiz shunday dedi: “Bu odamlar gapimga kirmay, Men ota–bobolari
bilan tuzgan ahdimni buzdilar! 21 Shuning uchun Men ularning oralarida Yoshuaning
o‘limidan keyin qolib ketgan begona xalqlarning birontasini ham ularning huzuridan
haydab chiqarmayman.” 22 Isroil xalqi ota–bobolari singari Egamizning yo‘lidan yurish–
yurmasligini ko‘rish uchun, 23 Egamiz bu xalqlarni Yoshuaga taslim qilmagan edi.
Ularning hammasini birdaniga haydab chiqarmay, yurtda qolishlariga ijozat bergan edi.

3–BOB

Yurtda qolgan o‘zga xalqlar

1-2 Egamiz, Kan’on yurtida bo‘lib o‘tgan bironta urushda qatnashmagan Isroil xalqini
sinay, hech qachon urush ko‘rmagan bu yangi avlodga jangni o‘rgatay deb, quyidagi
xalqlarni qoldirgan edi: 3 beshta Filist begini*, barcha Kan’on xalqlarini, Sidonliklar va
Baal–Xermon tog‘idan to Levo–Xomatgacha* Lubnon qirlarida yashagan Xiv xalqini.
4 Ular yordamida Egamiz O‘z xalqi Isroilni sinab, Muso orqali ota–bobolariga bergan
amrlarga itoat qilish–qilmasligini ko‘rmoqchi edi. 5 Shunday qilib, Isroil xalqi Kan’on,
Amor, Pariz, Xiv, Xet va Yobus xalqlarining orasida yashadi. 6 Ular o‘sha xalqlar bilan
apoq–chapoq bo‘lib, qiz olib, qiz berishardi, hatto xudolariga ham sig‘inishardi.

O‘tniyol

7 Isroil xalqi Egamizning oldida qabih ishlar qilar edi. Ular o‘zlarining Egasi Xudoni
eslaridan chiqarib, Baal va Asheraning* tasvirlariga sig‘inishar edi. 8 Bundan
g‘azablangan Egamiz ularni Oram–Naxrayim* shohi Kushonrishtamga tobe qilib qo‘ydi.
Ular sakkiz yil davomida Kushonrishtamning xizmatida bo‘lishdi. 9 Ammo Isroil xalqi
Egamizga iltijo qilgach, Egamiz ularga qutqaruvchi qilib O‘tniyolni yubordi. O‘tniyol
Xolibning jiyani, aniqrog‘i, kenja ukasi Xanazning o‘g‘li edi. 10 Egamizning Ruhi O‘tniyolni
qamrab oldi. O‘tniyol Isroil xalqiga hakam* bo‘ldi. O‘tniyol shoh Kushonrishtamga
qarshi jang qilib, uni yengdi, chunki Egamiz shohni uning qo‘liga bergan edi. 11 Shundan
keyin yurtda qirq yil tinchlik, osoyishtalik bo‘ldi. So‘ng Xanaz o‘g‘li O‘tniyol olamdan
o‘tdi.

Ehud

12 Isroil xalqi Egamizning oldida yana qabihliklar qilgani uchun, Egamiz Mo‘ab
yurtining* shohi Eglonni ularga qarshi qo‘zg‘atdi. 13 Shoh Eglon Ommon va Omolek
xalqlari bilan birgalikda Isroil xalqini yengib, palma shahri Yerixoni* qo‘lga kiritdi.
14 Shunday qilib, Isroil xalqi o‘n sakkiz yil davomida Mo‘ab yurtining shohi Eglonga
qaram bo‘lib yashadi.

15 Ammo Isroil xalqi Egamizga iltijo qilishi bilanoq, Egamiz ularga Ehud ismli bir
qutqaruvchini yubordi. Gera o‘g‘li Ehud Benyamin qabilasidan bo‘lib, chapaqay edi.
Isroil xalqi Ehud orqali Mo‘ab shohi Eglonga o‘lpon jo‘natdi. 16 Ehud o‘ziga uzunligi bir
tirsak* bo‘lgan xanjar yasab, uni o‘ng tomoniga, kiyimining ichidan taqib olgandi. 17 U
o‘lponni shoh Eglon huzuriga olib kirdi. Shoh Eglon haddan tashqari semiz bir odam edi.
18 Ehud o‘lponni taqdim qilib bo‘lgach, hadyalarni ko‘tarib kelgan odamlar bilan birga
uyga yo‘l oldi. 19 Biroq ular Gilgaldagi* tosh haykallar* o‘rnatilgan joyga yetganlarida,
Ehud iziga qaytdi. U Eglonning oldiga kelib: “Ey hazrati oliylari, sizga aytadigan bir sirim
bor”, — dedi. Shoh: “Bizni xoli qo‘yinglar!” — deyishi bilanoq, uning huzuridagi
xizmatkorlar chiqib ketishdi. 20 Shoh salqin boloxonasida yolg‘iz o‘zi qoldi. Ehud unga
yaqinlashib: “Men sizga Xudoning xabarini yetkazmog‘im lozim”, — dedi. Eglon o‘rnidan
turdi. 21 Shunda Ehud o‘ng tarafida osilgan xanjarni chap qo‘li bilan sug‘urib olib,
Eglonning qorniga sanchdi. 22 Xanjar sopi bilan Eglonning qorniga kirib ketdi, teshigini
esa yog‘ qopladi. Ehud xanjarni sug‘urib olmadi, xanjar tig‘i shohning qornini yorib
butidan chiqdi*. 23 Ehud ayvonga chiqdi, boloxona eshiklarini yopib, qulfladi. 24 U ketishi
bilanoq, Eglonning xizmatkorlari kelishdi. Eshik qulf ekanligini ko‘rishgach: “Shohimiz
salqingina xonada hojatini chiqarayotgan bo‘lsalar kerak” degan xayolga borishdi.
25 Ammo boloxonaning eshiklari hadeganda ochilavermagandan so‘ng, xizmatkorlar
bezovtalanishdi. Ular tashqarida ancha kutib qolishganidan keyin, kalit olib, eshikni
ochishdi. Qarashsa, shoh hazratlari jonsiz yotgan ekan.

26 Ehud esa paytdan foydalanib, qochib qolgan edi. U tosh haykallar oldidan o‘tib,
Saviro shahriga bordi. 27 Efrayim qirlariga yetib kelganda burg‘u chalib, Isroil xalqini
jangga da’vat qildi. Ehud hammani boshlab qirlardan pastga tushar ekan, 28 Isroil
xalqiga: “Orqamdan yuringlar! — dedi. — Dushmanimiz Mo‘ab xalqini Egamiz sizlarning
qo‘lingizga berdi–ku!” Isroil xalqi Ehudga ergashdi. Ular Iordan daryosining kechuv
joylarini qo‘lga olib, bironta odamni ham u yerdan o‘tkazishmadi. 29 O‘sha kuni ular o‘n
mingtacha baquvvat va jasur Mo‘ab sipohlarini o‘ldirishdi. Birontasi ham Isroil xalqining

qo‘lidan qochib qutulmadi. 30 O‘sha kuni Isroil xalqi Mo‘ab lashkarini mag‘lub qildi.
Yurtda sakson yil tinchlik, osoyishtalik bo‘ldi.

Shamgar

31 Ehuddan keyin Onot o‘g‘li Shamgar hakam bo‘ldi. U ham Isroil xalqini qutqarib,
govron* bilan olti yuz nafar Filist sipohini o‘ldirdi.

4–BOB

Dobira va Baraq

1 Ehudning o‘limidan so‘ng Isroil xalqi yana Egamizning oldida qabih ishlar qildi.
2 Egamiz esa ularni Xazor shahri taxtida o‘tirgan Kan’on shohi Yobinga qaram qilib
qo‘ydi. Uning lashkarboshisi Xaroshet–Xagoyim shahrida yashagan Sisaro edi.
3 Yobinning to‘qqiz yuzta temir jang aravasi* bor edi. Uning yigirma yil davomida
o‘tkazib kelgan zulmiga chiday olmagan Isroil xalqi najot so‘rab, Egamizga iltijo qildi.

4 Ayni zamonda Lappido‘tning xotini bo‘lgan payg‘ambar ayol Dobira Isroil xalqiga
hakam* bo‘lib xizmat qilayotgan edi. 5 U Rama va Baytil shaharlari o‘rtasida, Efrayim
qirlaridagi ma’lum bir palma daraxti tagida o‘tirar, Isroil xalqi esa janjalli masalalarni
yechish uchun uning oldiga borar edi. Keyinchalik xalq o‘sha palma daraxtiga Dobira
deb nom qo‘ydi. 6 Bir kuni Dobira Naftali yerlaridagi Kedesh shahriga bir odam jo‘natib,
Baraqni chaqirtirib keldi. Baraq Abunavamning o‘g‘li edi. Dobira Baraqqa shunday dedi:

— Isroil xalqining Xudosi — Egamiz senga amr qilmoqda: “Bor, o‘zing bilan Naftali
va Zabulun qabilalaridan o‘n ming nafar odamni Tovur tog‘iga* olib chiq. 7 Men
Yobinning lashkarboshisi Sisaroni, jang aravalari va lashkari bilan Xishon daryosining
yonida senga ro‘baro‘ qilaman. Bu jangda ularni sening qo‘lingga beraman.”

8 — Agar sen men bilan borsang, boraman, bormasang, men ham bormayman, —
dedi Dobiraga Baraq.

9 Dobira shunday javob berdi:

— Albatta sen bilan boraman, lekin bilginkim, bu g‘alaba senga sharaf keltirmaydi,
zero, Egamiz Sisaroni ayol kishining qo‘liga beradi.

Shunday qilib, Dobira Baraq bilan Kedeshga jo‘nadi. 10 Baraq Naftali bilan Zabulun
lashkarlarini Kedeshga to‘pladi. To‘planganlardan o‘n mingtasi Baraqqa ergashdi,
Dobira ham ular bilan bordi.

11 Shu orada Xayin xalqidan bo‘lgan Xaber ismli bir kishi o‘z urug‘–aymoqlaridan
ajralib, boshqa joyga ko‘chib o‘tgan edi. U o‘z chodirini Kedeshning yaqinidagi,
Zananimdagi eman daraxtining yoniga qurgan edi. O‘sha odam Musoning qaynag‘asi
Xo‘vov urug‘idan edi.

12 Sisaro Abunavam o‘g‘li Baraqning Tovur tog‘iga chiqqanini eshitgach, 13 to‘qqiz yuz
temir jang aravasi bilan jamiki lashkarini Xaroshet–Xagoyimdan olib chiqib, Xishon
daryosida to‘pladi. 14 Shunda Dobira Baraqqa dedi: “Qani, bo‘l! Egamiz bugun Sisaroni
senga taslim qiladi. Egamizning O‘zi seni jangga boshlab boradi.” Baraq o‘n mingta
odamga bosh bo‘lib, Tovur tog‘idan tushdi. 15 Baraq hujum qilgach, Sisaroni, uning jang
aravalariyu lashkarini Egamiz sarosimaga soldi. Sisaro jang aravasidan tushdi–da,
qochib qoldi. 16 Baraq dushman jang aravalarini va lashkarini Xaroshet–Xagoyimgacha
ta’qib qildi. Sisaroning barcha lashkarini qilichdan o‘tkazdi, ulardan birortasi ham omon
qolmadi.

17 Sisaro qochib, Xaberning xotini Yovelning chodiriga bordi, chunki Xazor shohi
Yobin Xaber urug‘i bilan sulh tuzgan edi. Xaber Xayin xalqidan edi. 18 Yovel Sisaroni
qarshi olib:
— Keling, to‘ram, ichkariga kiring, qo‘rqmang, — dedi.
Sisaro ichkariga kirdi, Yovel uni chodir pardasining orqasiga yashirib qo‘ydi. 19 Keyin
Sisaro unga:
— Iltimos, ozgina suv ber, chanqab ketdim, — dedi.
Yovel meshni ochib, unga sutdan ichirdi. So‘ng Sisaroni yana parda bilan to‘sib
qo‘ydi. 20 U esa Yovelga shunday dedi:
— Chodirning kiraverishiga borib tur, agar birortasi kelib sendan: “Bu yerda biror
odam bormi?” — deb so‘rasa, “Yo‘q”, — deb javob ber.
21 Sisaro charchaganidan yotib uxlab qoldi. Xaberning xotini Yovel esa bir qo‘liga
chodir qozig‘ini, boshqa qo‘liga bolg‘a olib sekingina uning oldiga bordi. Qoziqni
Sisaroning chakkasiga qoqib, boshini yerga qadab qo‘ydi. Sisaro o‘ldi. 22 Yovel Sisaroni
quvib kelayotgan Baraqni qarshi olgani chiqib: “Keling, men sizga qidirayotgan
odamingizni ko‘rsataman”, — dedi. Baraq chodirga kirdi. Qarasa, Sisaro o‘lib yotibdi,
chakkasiga qoziq qoqilgan ekan.
23 O‘sha kuni Xudo Kan’on xalqining shohi Yobinni Isroil xalqiga bo‘ysundirdi.
24 Isroil xalqi kundan–kunga kuchayib, oxiri Kan’on shohi Yobinni butunlay yo‘q qildi.

5–BOB

Dobira va Baraqning qo‘shig‘i

1 Abunavam o‘g‘li Baraq bilan Dobira o‘sha kuni shunday qo‘shiq kuylashdi:

2 “Isroil yo‘lboshchilari yo‘l boshlaganda,
Xalq fidoyilik ko‘rsatganda,
Egamizga hamdu sanolar ayting!

3 Eshiting, sizlar, ey shohlar!
Quloq soling, ey yo‘lboshchilar!
Egamizga men qo‘shiq aytarman,
Isroil xalqining Xudosi — Egamizni
Kuylab soz chalarman.

4 Sen, ey Egam, Seirdan* yo‘lga chiqqaningda,
Edom bo‘ylab yurish qilganingda,
Yer silkindi, osmon yomg‘irin quydi,
Ha, bulutlar sharros yomg‘irin to‘kdi.
5 Tog‘lar titradi Sinaydagi Egamiz oldida,
Isroil xalqining Xudosi — Egamizning oldida.

6 Onot o‘g‘li Shamgar davrida,
Yovel zamonida yurmay qo‘ygandi karvon.
Yo‘lovchilar so‘qmoqdan yurishga bo‘ldi majbur.
7 Isroil qishloqlari huvullab qoldi butkul.

Men, Dobira, kelgunimga qadar,
Isroilning volidasi singari,
Bo‘m–bo‘sh edi Isroil qishloqlari!
8 Yangi xudolarni Isroil xalqi tanlaganda,
Jang qizidi shahar darvozalarida.
Na qalqoni, na nayzasi bor edi
Isroilning qirq mingta sipohida.
9 Qalbim moyil Isroil yo‘lboshchilariga,
Xalqning orasidagi fidoyilarga.
Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin!

10 Eshiting*, ey oq xachir minganlar,
Qimmatbaho egarlarda o‘tirganlar!
Ey yo‘lda yayov yurganlar!
11 Quduq oldidagi cho‘ponlarning* ovozlarin eshiting.
Madh qilayotir ular Egamizning zafarlarini,
Isroildagi qishloqlarning g‘alabalarini.

Shahar darvozalariga hamla qildi Egamiz xalqi:
12 «Olg‘a bos, Dobira, olg‘a bos ildam!
Olg‘a bos, kuylagin jangovar qo‘shiq!
Abunavam o‘g‘li Baraq! Qani, bo‘l sen ham!
Asirlaringni o‘zing boshlagin!»
13 Xalqning qolgani bo‘ysundirdi bahodirlarni,
Egamiz xalqi mag‘lub qildi pahlavonlarni,
14 Omoleklarni yenggan Efrayimdan* chiqqandi.
Benyamin ham senga ergashdi,
Moxir naslidan kelishdi lashkarboshilar,
Zabulun qavmidan — hokimlik tayog‘in tutganlar.
15 Dobiraga qo‘shildi Issaxor yo‘lboshchilari,
Baraqni qo‘lladi Issaxor o‘g‘lonlari.
Vodiyga shoshildi ular Baraq ortidan.
Ammo beqarorlik qildi Rubenning nasli.
16 Nega sizlar qo‘ralarda qoldingiz, ey Ruben?
Cho‘ponlarning qurey–qureylarin eshitganimi?!
Beqarorlik qildi–ku Rubenning nasli.
17 Gilad Iordan ortida qoldi.
Dan o‘z kemalari yonida qoldi.
Osher dengiz sohilida o‘rnashib oldi,
O‘z ko‘rfazlarida joylashib qoldi.
18 O‘limdan qo‘rqmadi Zabulun lashkari,
Jonin ayamadi Naftali ham jang maydonida.

19 Tanaxda, Magido‘ suvlari yonida
Kan’on shohlari urush ochishdi.

Biroq xazinani ular o‘lja qila olmadi.
20 Jang qildi yulduzlar samoda turib*,
Sisaroga urush qildi o‘z yo‘llarida yurib.
21 Supurib tashladi dushmanni Xishon daryosi,
O‘sha ko‘hna daryo — Xishon daryosi.
Ey jonim! Kuch ila olg‘a bos!

22 Tulporlar keldi dupur–dupur qilib,
Sisaro otlarining tuyoqlari yerni tamg‘alab.

23 «Miroz shahrini la’natla,
— deydi Egamizning farishtasi, —
Aholisini ham qattiq qarg‘agin,
Ular kelmadi Egamizga madad bergani,
Pahlavonlarga qarshi Egamizga madad bergani.»

24 Xayin urug‘idan bo‘lgan Xaberning xotini — Yovel
Ayollar orasida baraka topsin!
Chodirlarda yashaydigan ayollarning baxtlisi bo‘lsin.
25 Sisaro suv so‘raganda Yovel keltirdi sut,
Shohkosada qatiq olib keldi u.
26 Chodir qozig‘ini qo‘liga oldi,
O‘ng qo‘lida bolg‘ani tutdi.
Zarba bilan Sisaroning boshini yordi,
Chakkasiga bir urib, teshib yubordi.
27 Sisaro sulayib yiqilib tushdi,
Yovelning oyog‘i ostida churq etmay qoldi.
Yovelning oyog‘i ostida sulayib qoldi,
Yiqilgan joyida jon taslim qildi.

28 Sisaroning onasi derazadan ko‘chaga qarar,
Panjara ortidan u zorlanib aytar:
«Aravalar qolib ketdi namuncha?
Tuyoqlar ovozi eshitilmas hanuzgacha?»
29 Javob berar uning dono ayollari,
Javob berar takror–takror o‘ziga o‘zi:
30 «Bo‘lishayotgandir ular o‘ljani,
Har qaysi sipohga bir–ikki juvonni,
Sisaroga rang–barang liboslarni.
G‘oliblarga olib kelar ikki hissa qilib
Nafis naqshli liboslarni.»

31 Ey Egamiz! Dushmanlaring barchasi
Sisaroga o‘xshab qirilib ketsin!
Do‘stlaring–chi, chiqayotgan quyoshday
Charaqlab tursin!”

Yurtda qirq yil tinchlik barqaror bo‘ldi.

6–BOB

Gido‘n

1 Isroil xalqi Egamizning oldida qabihliklar qildi. Egamiz ularni yetti yilga Midiyon
xalqining* qo‘liga berdi. 2 Midiyonlarning zulmiga chiday olmagan Isroil xalqi tog‘larda,
g‘orlarda va adirlardagi pana joylarda yashirinib yurdi. 3 Har safar Isroil xalqi ekin
ekkanda, Midiyonlar, Omolek xalqi va sharqdagi ko‘chmanchilar birgalikda ularning
yerlariga bostirib kirishardi. 4 Ular Isroil yerida qarorgoh qurib, to G‘azo shahri
atroflarigacha bo‘lgan hamma hosillarini nobud qilishardi. Isroil xalqi uchun hech
qanday ozuqa qoldirmay, qo‘y, eshak, mollarigacha tortib olishardi. 5 Dushman galalari
o‘zlari bilan chorvasini olib, hatto chodirlarini ham ko‘tarib kelishardi. Ular chigirtka*
kabi g‘ijillab yotar edi, odamlarning va tuyalarining sanog‘iga yetib bo‘lmasdi. Ular kelib,
butun yurtni xarob qilishardi. 6 Midiyonlarning dastidan jabr–jafo ko‘rgan Isroil xalqi
Egamizdan najot so‘rab, faryod qildi.
7 Isroil xalqi Egamizga faryod qilganda, 8 Egamiz ularga bir payg‘ambar yuborib,
quyidagilarni xabar qildi:
— Isroil xalqining Xudosi — Egangiz shunday aytmoqda: “Sizlarni Misrdagi
qullikdan olib chiqqan Men edim. 9 Men sizlarni Misrliklarning qo‘lidan hamda bu
yurtda sizlarga zulm o‘tkazgan barcha xalqlardan xalos qildim. Ularni o‘z yurtlaridan
haydab, yerlarini sizlarga berdim. 10 Sizlarga, Men Egangiz Xudoman, sizlar Amor
xalqlarining* yurtida yashab yursangiz ham, ularning xudolariga sajda qilmanglar,
degan edim. Ammo sizlar gaplarimga quloq solmadingizlar.”
11 Keyin Egamizning farishtasi O‘fra shahriga kelib, eman daraxtining tagida o‘tirdi.
Bu daraxt Abuazar urug‘idan bo‘lgan Yo‘shga tegishli edi. O‘sha paytda uning o‘g‘li
Gido‘n Midiyonlardan bekinib, uzum siqish chuqurida* bug‘doy yanchayotgan edi.
12 Egamizning farishtasi unga zohir bo‘lib dedi:
— Ey dovyurak jangchi, Egamiz sen bilan birgadir.
13 — Agar Egamiz biz bilan birga bo‘lsa, nima uchun bu kulfatlar boshimizga tushgan
ekan?! — dedi Gido‘n. — Ota–bobolarimiz: “Egamiz bizni Misrdan olib chiqdi”, deya
bizga aytib bergan edi, Egamizning ajoyib ishlari qayerda qoldi?! Egamiz bizni tark etib,
Midiyonlarning qo‘liga berib qo‘ydi–ku.
14 Shunda Egamiz unga qarab dedi:
— Qani, bo‘l, bor qudratingni ishga solib, Isroil xalqini Midiyonlarning qo‘lidan xalos
qil. Men O‘zim seni yuboryapman.
15 — Ey to‘ram*, qanday qilib men Isroil xalqini xalos qila olaman? — dedi Gido‘n. —
Mening urug‘im Manashe qabilasining eng zaifi bo‘lsa, o‘zim esa otam xonadonining
kenjasi bo‘lsam.
16 Egamiz unga dedi:
— Men sen bilan bo‘laman, sen Midiyonlarning hammasini bir odamni yengganday
osonlikcha yengasan.
17 Shunda Gido‘n dedi:
— Agar marhamatingga sazovor bo‘lgan bo‘lsam, Sen chindan ham Egam

ekanligingni isbotlab, biron–bir alomat koʻrsat. 18 Nazr olib kelib, Senga taqdim
qilmagunimcha bu yerdan ketma.
— Mayli, qaytib kelguningga qadar shu yerda boʻlaman, — dedi U.
19 Gidoʻn uyiga borib, bitta uloqchani pishirdi, bir togʻora* undan yupqalar
tayyorladi. Uloqchaning goʻshtini savatga, shoʻrvasini esa tovoqqa solib, eman
daraxtining tagida oʻtirgan Egamizning farishtasiga olib borib, taqdim qildi.
20 Egamizning farishtasi unga dedi:
— Goʻsht va yupqalarni olib, mana bu toshning ustiga qoʻygin, shoʻrvani esa
bularning ustidan quy.
Gidoʻn aytilganday qildi. 21 Egamizning farishtasi qoʻlidagi tayoqning uchini goʻsht va
yupqalarga tekkizishi bilanoq toshdan olov chiqib goʻsht va yupqalarni kuydirib
yubordi. Soʻng Egamizning farishtasi koʻzdan gʻoyib boʻldi. 22 Shunda Gidoʻn oʻsha odam
Egamizning farishtasi ekanligini fahmlab:
— Voy, shoʻrim quridi! — dedi. — Yo Egam Rabbiy, men farishtangning yuzini
koʻrdim*.
23 Egamiz:
— Tinchlan, — dedi. — Qoʻrqma, sen oʻlmaysan.
24 Gidoʻn Egamizga atab bir qurbongoh qurib, uning nomini “Egamiz tinchlikdir” deb
atadi. Qurbongoh bugunga qadar* Abuazar urugʻiga qarashli boʻlgan Oʻfrada bor.
25 Xuddi oʻsha kuni kechasi Egamiz Gidoʻnga shunday dedi: “Otangning yetti yashar
ikkinchi buqasini* ol, otang Baalga atab qurdirgan qurbongohni vayron qil. Qurbongoh
yonidagi Asheraga* atalgan ustunni ham kesib tashla. 26 Shu yerdagi qal’aning tepasiga
chiqib, Egang Xudoga — Menga atab bir qurbongoh qur. Qurbongoh toshlari bir–
birining ustiga tekis terilgan boʻlsin. Soʻng oʻsha buqani* olib, qurbongohda qurbonlik
qilib kuydir. Oʻtin oʻrniga kesib tashlangan ustunni ishlat.” 27 Gidoʻn oʻnta xizmatkorini
olib, xuddi Egamiz aytganday qildi. Ammo uydagilaridan va shahardagi odamlardan
qoʻrqqanidan buni kunduz kuni qilmay, kechasi qilgan edi.
28 Shahar aholisi erta bilan saharda turganda Baal qurbongohi vayron boʻlganini,
yonidagi Asheraning ustuni kesib tashlanganini va yangi qurilgan qurbongohning ustida
buqa qurbonlik qilinganini koʻrishdi. 29 Ular bir–birlaridan: “Buni kim qilgan ekan?” deb
soʻray boshladilar. Soʻrab–surishtirgandan keyin buni Yoʻsh oʻgʻli Gidoʻn qilganini
aniqlashdi. 30 Shunda shahar aholisi Yoʻshga:
— Oʻgʻlingni bu yerga olib chiq! — dedilar. — Biz uni oʻldiramiz! U Baal
qurbongohini buzibdi, qurbongoh yonidagi Asheraning ustunini ham kesib tashlabdi.
31 — Sizlar hali Baalning tarafini olyapsizlarmi?! — deya Yoʻsh gʻazablangan
olomonga doʻq urdi. — Uni himoya qilyapsizlarmi? Kim uning tarafini olsa, tong
otguncha oʻldiriladi. Agar u xudo boʻlsa, vayron boʻlgan qurbongohi uchun oʻzi oʻch olsin.
32 Gidoʻn Baal qurbongohini buzib tashlagani uchun, odamlar oʻsha kundan boshlab
Gidoʻnni Yerubbaal deb atay boshladilar. Bu: “Baal oʻzi oʻch olsin” deganidir.
33 Midiyonlar, Omolek xalqi va sharqdagi koʻchmanchilar birgalikda Iordan
daryosidan oʻtib, Yizril vodiysida qarorgoh qurdilar. 34 Egamizning Ruhi Gidoʻnni
qamrab oldi. Gidoʻn burgʻu chalib, Abuazar urugʻidan boʻlganlarni oʻziga ergashishga
chaqirdi. 35 U butun Manashe hududi boʻylab choparlar joʻnatib, u yerdagilarni ham oʻz
atrofiga yigʻdi. U Osher, Zabulun va Naftali qabilalariga ham oʻz choparlarini yuborgan
edi. Ular ham kelib Gidoʻnga qoʻshilishdi.

36 Shunda Gido‘n Xudoga dedi: “Isroil xalqini men orqali ozod qilishingni aytgan
eding, bunga amin bo‘lmoq uchun, 37 mana men titilgan junni xirmonga qo‘yaman. Agar
ertalab shudring faqatgina junning ustida bo‘lib, yer qup–quruq bo‘lsa, Sen Isroil xalqini
men orqali ozod qilishingga ishonaman.” 38 Xuddi shunday bo‘ldi. Ertasi kuni Gido‘n
barvaqt turib, junni olib siqdi, jundan bir kosa suv chiqdi. 39 Shunda Gido‘n Xudoga dedi:
“Menga qahring kelmasin, Senga yana birgina gapim bor. Iltimos, jun bilan yana bir bor
sinov o‘tkazay. Bu safar shunaqa qilginki, junning usti qup–quruq, yerning usti esa
shudring bilan qoplangan bo‘lsin.” 40 Shu kechada Xudo xuddi shunday qildi. Junning
usti qup–quruq bo‘lib, yerning usti esa shudring bilan qoplangan edi.

7–BOB

Gido‘n Midiyonlarni yakson qiladi

1 Yerubbaal, ya’ni Gido‘n, jamiki lashkari bilan barvaqt turib, qarorgohini Xaro‘d
bulog‘ining bo‘yida joylashtirdi. Midiyonlarning qarorgohi esa ulardan shimolda, Mo‘re
tepaligining* yonidagi vodiyda joylashgan edi.
2 Egamiz Gido‘nga dedi: “Sening lashkaring juda ko‘p bo‘lgani uchun Midiyonlarni
qo‘llaringga berolmayman. Aks holda, Isroil xalqi, Meni ulug‘lamay, g‘alabaga o‘z
kuchimiz bilan erishdik, deb o‘ziga bino qo‘yadi. 3 Dushmandan qo‘rqqanlarga ijozat ber,
Gilad tog‘ini* tark etib, uylariga qaytib ketsinlar.” Shunday qilib, odamlarning yigirma
ikki mingtasi qaytib ketib, o‘n mingtasi qoldi.
4 Keyin Egamiz Gido‘nga dedi: “Qolgan lashkar ham ko‘plik qiladi. Ularni suv bo‘yiga
olib tush, u yerda senga ularni ajratib beraman. Men senga, bunisi sen bilan boradi
deganim sen bilan boradi, bunisi esa sen bilan bormaydi deganim sen bilan bormaydi.”
5 Gido‘n lashkarni suv bo‘yiga olib tushdi. Egamiz unga dedi: “Suvni itga o‘xshab,
yalab ichganlarning hammasini bir tarafga, cho‘kkalab ichganlarni esa boshqa tarafga
turg‘izib qo‘y.” 6 Suvni hovuchlab yalaganlarning soni uch yuzta edi. Lashkarning
qolganlari esa cho‘kkalab suvni ichgandi. 7 Egamiz Gido‘nga dedi: “Suvni yalab ichgan
uch yuzta odam bilan sizlarni ozod qilib, Midiyonlarni qo‘llaringga beraman. Qolganlarni
qo‘yib yubor, uylariga qaytib ketaverishsin.” 8 Gido‘n uch yuzta odamdan boshqa
hammasini uylariga qaytarib yubordi. Ammo ketganlarning oziq–ovqatiyu burg‘ularini
olib qoldi.
Midiyonlarning qarorgohi pastda, vodiyda joylashgan edi.
9 O‘sha kuni kechasi Egamiz Gido‘nga dedi: “Tur, qarorgohga hujum qil. Men uni
sening qo‘lingga berdim. 10 Agar qo‘rqayotgan bo‘lsang, Purax degan xizmatkoringni
olib, qarorgohga tush. 11 Midiyonlarning gapini eshitgach, yurak yutib qarorgohga
hujum qilasan.” Gido‘n Purax ismli xizmatkorini olib pastga, yov qarorgohining etagiga
tushdi. 12 Midiyonlar, Omolek xalqi va sharqdagi ko‘chmanchilar vodiyda chigirtkaday*
g‘ijillab yotardi. Ularning tuyalari esa dengiz qirg‘og‘idagi qumday son–sanoqsiz edi.
13 Gido‘n yov qarorgohiga yetib borganda, bir odam o‘zining birodariga tushini aytib
berayotganini eshitib qoldi. O‘sha odam shunday hikoya qilayotgan edi:
— Men bir tush ko‘rdim. Tushimda arpadan pishirilgan qandaydir bir non Midiyon
qarorgohiga yumalab kelib, chodirga urilibdi. Chodir esa ag‘darilib tushibdi.
14 — Bu aniq Isroil xalqidan bo‘lgan Yo‘sh o‘g‘li Gido‘nning qilichidir! — dedi
birodari. — Xudo Midiyonlarni barcha lashkarlari bilan uning qo‘liga bergan ekan–da!

15 Gido‘n tush ta’birini eshitgach, Xudoga sajda qildi. Orqaga — Isroil xalqining
qarorgohiga qaytib: “Qani, ketdik! Egamiz Midiyon lashkarlarini qo‘limizga berdi”, —
dedi. 16 Keyin uch yuzta odamni uch qismga bo‘lib, har birining qo‘liga bittadan burg‘u
va bo‘sh ko‘zadan berdi. Ko‘zalarning ichida esa bittadan mash’ala bor edi. 17 Gido‘n
lashkariga shunday dedi:
— Yov qarorgohiga yaqinlashganimda meni yaxshilab kuzatib turinglar. Men nima
qilsam, sizlar ham shuni qilinglar. 18 Qarorgohni o‘rab olinglar. Men yonimdagilar bilan
burg‘u chalganimda, sizlar ham burg‘u chalib, ovozingiz boricha: “Egamiz va Gido‘n
uchun olg‘a!” deb baqiringlar.
19 Yarim tunda, dushman qarorgohida soqchilar endi almashib bo‘lgan paytda,
Gido‘n yonidagi yuzta odam bilan qarorgohga yaqinlashdi. Ular burg‘u chalib,
qo‘llaridagi ko‘zalarni charsillatib sindirdilar. 20 Lashkarning qolgan ikki qismi ham
burg‘u chalib, ko‘zalarni sindirdi. Hammalari o‘ng qo‘llarida burg‘u, chap qo‘llarida
mash’ala ushlagancha: “Egamiz va Gido‘n uchun olg‘a!” — deb qichqirdilar. 21 Gido‘n
odamlarining har biri qarorgoh atrofidagi o‘z joyida turardi. Qarorgohdagilar esa
sarosima ichida, baqirib qochishardi. 22 Gido‘nning uch yuzta odami burg‘u chalganda,
dushman qarorgohidagi lashkarlar bir–birini o‘ldira boshladilar. Bu Egamizning qudrati
tufayli sodir bo‘ldi. So‘ng Midiyon lashkarlari Zariro tomon yugurib, to Bayt–
Shittaxgacha, Tabbot yaqinidagi Ovil–Maxla shahrining* chegarasigacha qochishdi.
23 Shunda Gido‘n Midiyonlarni ta’qib qilish uchun Naftali, Osher va Manashe
qabilalarining odamlarini chaqirtirdi.
24 U butun Efrayim qirlari bo‘ylab choparlar jo‘natib dedi: “Pastga tushib
Midiyonlarga qarshi jang qilinglar. Iordan daryosining va Bayt–Borogacha bo‘lgan
barcha suv oqimlarining kechuv joylarini qo‘lga olib, Midiyonlarning o‘tishiga yo‘l
qo‘ymanglar.” Efrayim odamlarining hammasi to‘planib, Iordan daryosining va Bayt–
Borogacha bo‘lgan barcha suv oqimlarining kechuv joylarini egallab oldilar. 25 Ular
Midiyonlarning ikkita lashkarboshisi Oriv va Zayovni* Iordanning sharqiy qirg‘og‘igacha
ta’qib qilib, qo‘lga olishdi. Orivni bir qoyaning oldida, Zayovni esa uzum siqish
chuqurining* oldida o‘ldirishdi. Keyinchalik bu joylar Oriv qoyasi va Zayov chuquri deb
ataladigan bo‘ldi. So‘ng Midiyonlarni ta’qib qilishda davom etib, Oriv va Zayovning
boshlarini Gido‘nga olib borishdi.

8–BOB

Gido‘n Midiyon shohlarini qo‘lga oladi

1 Efrayim qabilasi Gido‘nga:
— Nega bunday qilding? Midiyonlarga qarshi jang qilgani chiqqaningda nega bizni
chaqirmading? — deya u bilan qattiq janjallashdilar.
2 Gido‘n esa ularga dedi:
— Men qilgan ishim bilan sizlarga teng kelarmidim?! Efrayimdagi uzum qoldiqlari
kichkinagina bir qavmimning jami hosilidan a’lo–ku! 3 Sizlar Xudoning qudrati bilan
Midiyon lashkarboshilari Oriv va Zayovni qo‘lga olgan bo‘lsangiz, o‘z ishlarim bilan
sizlarga teng kelarmidim?!
U bu gaplarni aytgandan keyin, ular jahldan tushdilar.
4 Gido‘n uch yuzta odami bilan Iordan daryosiga kelib narigi qirg‘oqqa o‘tib oldi*.

Ular holdan toygan bo‘lsalar–da, dushmanning ketidan quvib ketayotgan edilar. 5 Gido‘n
Suxot shahri aholisiga murojaat qilib:
— Ey xaloyiq, marhamat qilib odamlarimga ozgina non beringlar, ular holdan
toyganlar. Biz Midiyon shohlari Zevax va Zalmunoning ketidan quvib ketyapmiz, —
dedi.
6 Ammo Suxot boshliqlari shunday javob berishdi:
— Zevax va Zalmunoni qo‘lga olgan bo‘lsang ekan, lashkaringga non bersak.
7 — Juda soz! — dedi Gido‘n. — Zevax va Zalmunoni Egamiz mening qo‘limga
bergandan so‘ng, sizlarni cho‘ldagi yantoq va chaqir tikanaklar bilan savalab, teringizni
shilib olaman.
8 Gido‘n u yerdan Paniyol shahriga* yo‘l oldi. U yerdagilarga ham xuddi shunday
iltimos bilan murojaat qildi. Suxot aholisi qanday javob bergan bo‘lsa, Paniyol aholisi
ham xuddi shunday javob berdi. 9 Gido‘n Paniyol aholisiga dedi:
— G‘olib bo‘lib qaytib kelganimdan so‘ng bu minorani* yer bilan yakson qilaman.
10 O‘sha paytda Zevax va Zalmuno o‘z lashkarlari bilan Karxorda turgan edilar.
Sharqdagi ko‘chmanchilarning 120.000 nafar sipohi halok bo‘lib, 15.000 tachasi
qolgandi. 11 Gido‘n Navah va Yohboxoning sharq tomonidagi karvon yo‘li bo‘ylab borib,
dushmanni g‘aflatda qoldirib hujum qildi. 12 Zevax va Zalmuno qochishdi, Gido‘n esa
ularning ketidan quvib ketdi. Ikki Midiyon shohini qo‘lga olib, butun dushman lashkarini
sarosimaga soldi.
13 Yo‘sh o‘g‘li Gido‘n jangdan qaytib, Xares dovoni tomon ketayotganda, 14 Suxotlik
bir yigitchani ushlab olib, so‘roqqa tutdi. Yigitcha Suxot shahrining yetmish yettita
boshliq va oqsoqolini nomma–nom aytib berdi. 15 So‘ng Gido‘n Suxot aholisining oldiga
borib dedi:
— Eslaringizdami meni masxara qilib, Zevax va Zalmunoni qo‘lga olganmidingki, biz
holdan toygan lashkaringga non bersak, deb aytganlaringiz? Mana o‘sha Zevax va
Zalmuno.
16 Gido‘n yantoq va chaqir tikanaklarni olib, Suxot boshliqlarining ta’zirini berdi.
17 Paniyoldagi minorani ham vayron qilib, shaharning barcha erkaklarini qirib tashladi.
18 So‘ng Zevax va Zalmunoga yuzlanib:
— Sizlar Tovur shahrida o‘ldirgan odamlar qanday edi? — deb so‘radi.
— Ular senga o‘xshagan, ko‘rinishlari shoh o‘g‘illariday savlatli edi, — deya javob
berishdi ular.
19 — Ular mening jigarlarim edi–ku! — deya xitob qildi Gido‘n. — Biz bir qorindan
talashib tushgan edik. Xudo shohid! Ularni o‘ldirmaganlaringizda, men ham
jonlaringizni saqlab qolgan bo‘lardim.
20 So‘ng to‘ng‘ich o‘g‘li Eterga:
— Bor, ularni o‘ldir! — dedi.
Ammo bola qo‘rqqanidan qilichini ham chiqarmadi, chunki u hali yosh edi. 21 Shunda
Zevax va Zalmuno:
— Erkak bo‘lsang, o‘zing kelib bizni o‘ldir, — dedilar.
Gido‘n Zevax va Zalmunoni o‘ldirib, tuyalarining bo‘ynidagi shohona bezaklarini oldi.
22 Bo‘lib o‘tgan voqealardan so‘ng Isroil xalqi Gido‘nning oldiga kelib:
— Sen bizni Midiyonlarning qo‘lidan qutqarding, endi o‘zing, o‘g‘illaring va
nabiralaring bizga hukmdor bo‘linglar, — deyishdi.

23 — Men sizlarga hukmdor bo‘lmayman, — dedi Gido‘n, — o‘g‘lim ham
hukmdoringiz bo‘lmaydi. Egamning O‘zi sizlarga hukmronlik qilsin.
24 Keyin davom etib:
— Sizlardan bir narsa so‘ramoqchiman, — dedi. — O‘ljalaringizdan bittadan tilla
zirak bersangizlar.
Midiyonlar ham, Ismoil avlodi singari*, tilla ziraklar taqib yurishardi.
25 — Jonimiz bilan, — deb javob berdi Isroil xalqi.
So‘ng bir kiyim yoyib, har biri o‘lja qilib olgan tilla zirakdan o‘sha kiyim ustiga
tashladi. 26 Tilla ziraklarning o‘lchovi bir puddan ortiq* oltin chiqdi. Midiyon shohlari
kiygan safsar liboslar, taqqan yarim oy shaklidagi va shokilali bezaklar hamda
tuyalarining bo‘ynidagi tilla zanjirlar hisobga kiritilmagandi. 27 Gido‘n o‘sha oltindan bir
haykal* yasab, uni o‘z shahri O‘fraga o‘rnatib qo‘ydi. Butun Isroil xalqi Xudoga bevafolik
qilib, o‘sha yerdagi haykalga sig‘ina boshladi. Bu haykal Gido‘n va uning oilasi uchun
tuzoq bo‘lib qoldi.
28 Shunday qilib, Midiyonlar mag‘lub bo‘ldilar. Ular Isroil xalqiga qarshi bosh
ko‘tarishga qayta jur’at etmadilar. Gido‘n paytida yurtda qirq yil tinchlik barqaror bo‘ldi.

Gido‘nning o‘limi

29 Yo‘sh o‘g‘li Gido‘n* uyiga qaytib ketdi. 30 Uning yetmishta o‘g‘li bor edi, chunki
xotinlari nihoyatda ko‘p edi. 31 Shakam shahridagi cho‘risi* ham Gido‘nga bir o‘g‘il tug‘ib
berdi. Gido‘n unga Abumalek deb ism qo‘ydi. 32 Gido‘n ulug‘ yoshga kirib olamdan o‘tdi
va O‘fra shahridagi otasi Yo‘shning xilxonasiga dafn etildi. Bu shahar Abuazar urug‘iga
qarashli edi.
33 Gido‘n olamdan ko‘z yumishi bilanoq, Isroil xalqi yana Xudoga bevafolik qilib,
Baalning tasvirlariga sig‘ina boshladi, ular Baal–Beritni* o‘zlariga xudo qildilar. 34 Ularni
atrofdagi dushmanlardan xalos qilgan Egasi Xudoni eslaridan chiqardilar. 35 Yerubbaal,
ya’ni Gido‘n, Isroil xalqi uchun qilgan shuncha yaxshiliklariga qaramay, Isroil xalqi uning
xonadoniga sodiq qolmadi.

9–BOB

Abumalek

1 Gido‘n* o‘g‘li Abumalek Shakam shahriga — tog‘alarining oldiga borib, barcha
urug‘–aymoqlariga shunday dedi:
2 — Shakam beklarining huzuriga boringlar, ularga: “Ustingizdan Gido‘nning
yetmishta o‘g‘li hukmronlik qilganidan ko‘ra, bittasi hukmronlik qilgani yaxshi
emasmi?” deb aytinglar. Men sizlarning jigaringiz ekanimni ham eslaringizdan
chiqarmanglar.
3 Tog‘alari Abumalekning manfaatini ko‘zlab, bu so‘zlarni Shakam beklariga
yetkazdilar. Shakam beklari esa: “Har qalay Abumalek qarindoshimiz”, deya uning
tarafdorlari bo‘ldilar. 4 Shakam beklari unga Baal–Berit* uyidagi yetmish bo‘lak
kumushni* berdilar. Abumalek esa bu kumushga yaramas odamlarni yolladi. 5 U O‘fraga
— otasining uyiga borib, yetmishta o‘gay aka–ukasini bir tosh ustida qatl qildi. Ammo
Gido‘nning kenja o‘g‘li Yo‘tom bekinib, tirik qoldi. 6 So‘ng Shakam* beklari va Bayt–
Milloda yashovchilar Shakamdagi muqaddas eman daraxtining oldiga borib, u yerda
Abumalekni taxtga ko‘tarishdi.

7 Yo‘tom buni eshitgach, Garizim tog‘ining tepasiga chiqib xitob qildi:

“Ey Shakam beklari, gapimni eshitinglar, shunda Xudo ham sizlarni eshitgay!
8 Bir zamonda daraxtlar o‘zlariga shoh tanlamoqchi bo‘lishibdi. Ular zaytun daraxtiga:
— Shohimiz bo‘l, — deyishibdi.
9 Zaytun daraxti ularga shunday javob beribdi:
— Xudolar va bandalar sharafiga ishlatiladigan moyimni bermay qo‘yib, daraxtlar uzra shoxlarimni silkitib turaymi?!
10 Shunda daraxtlar anjirga:
— Sen kelib, shohimiz bo‘la qol, — deb aytishibdi.
11 Anjir daraxti ham shunday javob beribdi:
— Iye, shirin va lazzatli mevalarimni tugmay, daraxtlar uzra shoxlarimni silkitib turaymi?!
12 So‘ng daraxtlar tokka:
— Bizga sen hukmronlik qila qol, — deyishibdi.
13 Tok ham javob berib shunday debdi:
— Xudolar va bandalar dimog‘ini chog‘ qiladigan sharobimni bermay qo‘yib, daraxtlar uzra novdalarimni silkitib turaymi?!
14 Oxiri daraxtlarning barchasi yantoqqa deyishibdi:
— Sen kelib, bizga hukmronlik qilgin.
15 Yantoq esa daraxtlarga:
— Agar meni sidqidildan shohlikka ko‘tarayotgan bo‘lsangizlar, kelib soyamda panoh topinglar, aks holda, tikanlarimdan chiqqan olov avj olib, hatto Lubnondagi sadrlarni* ham kuydirib tashlaydi! — deb javob beribdi.
16 Shu tariqa sizlar ham Abumalekni taxtga sidqidildan, vijdonan ko‘tardingizmi?! Gido‘n va uning xonadoniga nisbatan to‘g‘ri ish tutdingizmi?! Qilmishlaringiz otamning sizlar uchun qilgan ezgu ishlariga loyiq ekanmi?!
17 Otam jonini ayamay sizlar uchun jang qilgan edi, sizlarni Midiyonlarning qo‘lidan qutqargan edi. 18 Sizlar esa otamning xonadoniga qarshi chiqib, uning yetmish nafar o‘g‘lini bir toshning ustida qatl qildingizlar. Cho‘risi tuqqan Abumalekni esa qarindoshingiz bo‘lgani uchun Shakam beklarining ustidan shoh qilib tayinladingizlar. 19 Agar bugun Gido‘n xonadoniga nisbatan vijdonan ish tutgan bo‘lsangiz, Abumalekdan mamnun bo‘lib shodlaning, u ham sizlardan mamnun bo‘lib shodlansin. 20 Aks holda, Abumalekdan olov chiqib, Shakam va Bayt–Millo beklarini yamlab yuborsin. Shakam va Bayt–Millo beklaridan ham olov chiqib, Abumalekni kuydirib yo‘q qilsin.”

21 So‘ng Yo‘tom Abumalekdan qo‘rqqanidan Ber hududiga qochib qoldi.
22 Abumalek uch yil Isroilda hukmronlik qildi. 23 Xudo esa Abumalek va Shakam beklari orasida nizo chiqarish uchun bir ruh yubordi. Shuning uchun Shakam beklari Abumalekka xoinlik qilishdi. 24 Bu hodisa Gido‘nning yetmishta o‘g‘lini o‘ldirgan Abumalekdan va uning bu jinoyatini qo‘llab turgan Shakam beklaridan qasos olinishining daragi edi. 25 Shunday qilib, Shakam beklari Abumalekka qarshi tog‘larning tepalarida, pistirmalarda odamlarini o‘tirg‘izib qo‘yishgandi. Ular o‘tgan–ketganlarni

talab, bor–yo‘g‘ini tortib olishardi. Abumalek bundan xabar topdi.
26 Gal ismli bir odam o‘z og‘a–inilari bilan Shakamga ko‘chib keldi. U Shakam
beklarining ishonchini qozondi. Gal Evid degan odamning o‘g‘li edi. 27 Shakamliklar
dalaga chiqib, uzumzorlaridan uzum terishdi, uni ezib sharob tayyorlashdi, so‘ng ziyofat
qilishdi. Ular xudosining uyida o‘tirib, ziyofat qilishar ekan, yeb–ichib Abumalekni
mazax qilishdi: 28 “Abumalek kim bo‘libdiki, biz, Shakamliklar, unga xizmat qilsak? —
shang‘illab gapini boshladi Gal. — Padari buzrukvorimiz Xamo‘r bu shaharga asos
solgan edi. Shunday ekan, Xamo‘r naslidan bo‘lgan bironta odam bizga hukmronlik
qilishi kerak. Abumalek esa yetti yot begona bo‘lgan Gido‘nning o‘g‘li–ku! Nega biz uning
va hokimi Zabulning oldida bosh egishimiz kerak ekan? 29 Agar bu odamlar qo‘lim ostida
bo‘lganda edi, Abumalekni o‘zim yo‘q qilardim! Unga, lashkaringni ko‘paytirib, jangga
chiq, degan bo‘lardim.”
30 Shahar hokimi Zabul Galning bu so‘zlarini eshitgach, g‘azabi alanga oldi. 31 U
bildirmay Abumalekning oldiga chopar jo‘natib* dedi: “Qarang, Evid o‘g‘li Gal butun
urug‘i bilan Shakamga kelib, shaharni sizga qarshi qo‘zg‘atmoqda. 32 Shuning uchun
yarim tunda lashkaringiz bilan yo‘lga tushib, dalalarda yashirining. 33 Ertasiga saharda
turib, shaharga qo‘qqisdan hujum qiling. Gal qo‘shinlari bilan sizlarga qarshi chiqqanda
qo‘lingizdan kelganicha ular bilan olishing.”
34 Shunday qilib, Abumalek lashkari bilan yarim tunda yo‘lga tushdi. Ular to‘rt
qismga bo‘linib Shakam yaqinida pisib yotishdi.
35 Gal chiqib shahar darvozasida turganda, Abumalek bir qism lashkari bilan qirlar
orqasidan chiqib keldi. 36 Gal ularni ko‘rgach, Zabulga dedi:
— Qarang! Qirlardan odamlar tushib kelmoqda!
— Qo‘ysang–chi, — dedi Zabul. — Qirlar soyalari ko‘zingga odamlar bo‘lib
ko‘rinyapti.
37 — Qarang, qirlardan odamlar pastga tushib kelishyapti, boshqa bir qismi esa
folbinlarning daraxti* tomonidan yaqinlashyapti, — dedi yana Gal.
38 — Katta ketib: “Abumalek kim bo‘pti biz unga xizmat qilsak?” deb gapirgan sen
emasmiding?! — dedi shunda Zabul, — sen mana shu lashkarni mazax qilgan eding–ku.
Qani, bo‘l, endi chiqib ular bilan jang qil.
39 Shakam beklari Gal boshchiligida chiqib, Abumalekka qarshi jang qilishdi.
40 Abumalek Galni quvib ketdi, ammo Gal qochib qoldi. O‘sha kuni Shakam sipohlarining
ko‘plari halok bo‘ldi, butun jang maydoni to shahar darvozasigacha jasadlarga to‘ldi.
41 Abumalek Armaxda* o‘rnashdi, Zabul esa Galni barcha qarindoshlari bilan
Shakamdan quvib yubordi. Ular endi Shakamda yashay olmas edilar.
42 Ertasi kuni Shakamliklar yumushlarini bajarmoq uchun dalalarga chiqmoqchi
ekanligidan Abumalek xabardor bo‘ldi. 43 U lashkarini uch qismga bo‘ldi. Lashkar
dalalardagi qirlarda pisib yotdi. Abumalek shahardan chiqib kelayotgan odamlarni
ko‘rib, lashkari bilan ularga hamla qildi. 44 Lashkarning bir qismi Abumalek
boshchiligida shahar darvozasini qo‘lga kiritdi. Ular shahar darvozasi oldidan
siljimadilar. Lashkarning qolgan ikki qismi esa daladagi odamlarga hujum qilib, ularni
qirib tashladi. 45 O‘sha kuni Abumalek kun bo‘yi shaharga qarshi jang qildi. Oxiri
shaharni qo‘lga oldi. U yerdagi hamma odamni qatl qildi. Shaharni esa vayron qilib,
ustidan tuz sochib tashladi*.
46 Shakam qal’asining beklari buni eshitgach, o‘sha yerdagi Baal–Berit* uyining

qo‘rg‘oniga kirib, bekinib oldilar. 47 Beklarning hammasi qo‘rg‘onda ekanligidan
xabardor bo‘lgan Abumalek 48 lashkari bilan Zalmon tog‘ining* tepasiga chiqdi. Qo‘lidagi
bolta bilan bir bog‘lam o‘tin kesib, orqasiga ortib oldi. So‘ng lashkariga: “Qani, sizlar ham
xuddi shunday qilinglar”, deb buyurdi. 49 Sipohlarning har biri bir bog‘lamdan o‘tin kesib
oldi. Ular Abumalekka ergashib o‘tinlarni qo‘rg‘onning atrofiga terib chiqdilar, so‘ng
qal’aga o‘t qo‘ydilar. Qal’adagi hamma odamlar halok bo‘ldi. U yerda mingtacha ayol va
erkak kishi bor edi.

50 Shundan so‘ng Abumalek Tavoz shahriga yo‘l oldi. Shaharni qamal qilib, qo‘lga
kiritdi. 51 Ammo shaharning ichida juda baland bir qo‘rg‘on bor edi. Shahardagi ayolu
erkaklar, hamma shahar beklari o‘sha qo‘rg‘on ichiga qochib kirishdi. Ular eshiklarni
tambalab, tomga chiqib olishdi. 52 Abumalek qo‘rg‘ondagilarga qarshi jang qildi, unga o‘t
qo‘ymoqchi bo‘lib, yoniga bordi. 53 Shu payt bir ayol tepadan tegirmon toshini uloqtirib,
Abumalekning boshini yorib yubordi. 54 Jon talvasasida Abumalek qurolbardorini yoniga
chaqirib:

— Bo‘l, qilichingni sug‘urib meni o‘ldir, — dedi, — yana odamlar: “Uni ayol kishi
o‘ldirdi”, deb yurishmasin.

Shunda yigit qilich suqib, Abumalekni o‘ldirdi. 55 Odamlar Abumalekning o‘lganini
ko‘rib uylariga tarqalib ketishdi. 56 Otasiga xiyonat qilib, yetmishta aka–ukasini o‘ldirgan
Abumalekni Xudo shu yo‘sinda jazolagan edi. 57 Shuningdek, Shakamliklarning ham
qilgan qabihliklari uchun ta’zirini bergan edi. Ular Gido‘n o‘g‘li Yo‘tomning qarg‘ishiga
yo‘liqdilar.

10–BOB

To‘lo

1 Abumalekning o‘limidan so‘ng Puvax o‘g‘li To‘lo Isroil xalqini dushmanlardan ozod
qildi. U Issaxor qabilasidan bo‘lgan Do‘do‘ning nabirasi bo‘lib, Efrayim qirlaridagi
Shomir shahrida istiqomat qilardi. 2 U Isroil xalqiga yigirma uch yil davomida hakam*
bo‘lib xizmat qildi. So‘ngra olamdan ko‘z yumib, Shomirda dafn qilindi.

Yovir

3 Undan keyin Giladlik Yovir hakam bo‘ldi. U yigirma ikki yil davomida Isroilga
rahnamolik qildi. 4 Uning o‘ttizta o‘g‘li bor edi. Ular o‘ttizta eshakni minishar va Gilad
o‘lkasidagi o‘ttizta shaharga egalik qilishardi*. Bu shaharlar bugunga qadar* Yovir
shaharlari* deb ataladi. 5 Yovir olamdan o‘tib, Kamonda dafn qilindi.

Yiftox

6 Isroil xalqi yana Egamizning oldida qabihliklar qilib, Baal va Ashtaretning
tasvirlariga sig‘inish bilan bir qatorda, Oram, Sidon, Mo‘ab, Ommon va Filist xalqlarining
xudolariga sajda qildi. Egamizdan yuz o‘girib, Unga sajda qilmay qo‘ydi. 7 Bundan
nihoyatda g‘azablangan Egamiz Isroil xalqini Filist va Ommon xalqlarining qo‘liga berdi.
8 O‘sha yili ular Isroil xalqiga zulm qilib, rosa ezdilar. Iordanning sharqida, ya’ni Gilad
o‘lkasida istiqomat qilgan Isroil xalqiga ular o‘n sakkiz yil davomida zulmini o‘tkazib
keldilar. Ilgarilari bu yerlar Amor xalqiga tegishli edi. 9 Shunisi yetmaganday, Ommon
xalqi Yahudo, Benyamin va Efrayim qabilalariga ham hujum qilmoqchi bo‘lib, Iordan
daryosining narigi qirg‘og‘iga o‘tib olgan edi.

Bundan qattiq tashvishga tushgan 10 Isroil xalqi:
— Biz gunoh qildik! — deya Egamizga faryod qildi. — Biz o‘z Xudoyimizdan yuz o‘girib, Baalning tasvirlariga sig‘indik.
11 Egamiz esa ularga shunday dedi:
— Men sizlarni Misr, Amor, Ommon va Filist xalqlarining zulmidan qutqardim.
12 Sidonliklarning, Omolek va Moyun* xalqlarining jabru zulmidan nolib, Menga yolvorganingizda, sizlarga najot berdim. 13 Shunga qaramay, sizlar Mendan yuz o‘girib, boshqa xudolarga sig‘indingizlar. Bo‘ldi, yetar! Endi sizlarni qutqarmayman! 14 Borib, o‘zlaringiz tanlab olgan xudolaringizga iltijo qilinglar. Qiynalganingizda ular sizlarga najot berishsin.
15 — Biz gunoh qildik! Bizga xohlaganingni qil, ammo bugun bizni dushmanlarimizdan qutqargin, — deya o‘tindi Isroil xalqi Egamizdan.
16 Shunday qilib, ular begona xudolarning tasvirlarini yo‘q qilib, Egamizga sajda qildilar. Isroil xalqining chekkan azob–uqubatlarini ko‘rgan Egamiz ularga nihoyatda achindi.
17 Ommon xalqi odamlarini jangga safarbar qilib, qarorgohini Gilad o‘lkasida joylashtirdi. Isroil xalqi esa to‘planib, qarorgohini Mispaxda* joylashtirdi. 18 Isroil qabilalarining rahnamolari: “Ommon xalqiga kim birinchi bo‘lib hujum qilar ekan?” — deya bir–birlariga qarab olishdi. So‘ng: “Jangni boshqargan odam Giladga hokim bo‘ladi” degan qarorga kelishdi.

11–BOB

1 Giladlik Yiftox dovyurak jangchi edi. Uning otasi Gilad, onasi esa fohisha bir ayol edi. 2 Giladning xotini ham unga o‘g‘illar tug‘ib bergan edi. Ular ulg‘aygach, Yiftoxga: “Otamizdan qolgan merosga sening hech qanday haqing yo‘q! Bor, yo‘qol! Sen boshqa ayolning bolasisan”, deya haydagan edilar. 3 Yiftox aka–ukalaridan qochib, Tov yurtiga borgan edi. O‘sha yerda o‘rnashib olganidan so‘ng, atrofiga yaramas odamlarni to‘plab, bosqinchilik qila boshlagan edi.
4 Oradan ma’lum vaqt o‘tgach, Ommon xalqi Isroil xalqiga hujum qildi. 5 Ommon xalqi Isroil xalqiga hujum qilganda, Gilad oqsoqollari Yiftoxni olib kelgani Tov yurtiga jo‘nadilar.
6 Ular Yiftoxga:
— Biz bilan yura qol, — dedilar. — Ommon xalqi bilan jang qilganimizda bizga rahnamolik qilgin.
7 — Sizlar meni mensimay otamning uyidan haydagan edingiz–ku! — deya zarda qildi ularga Yiftox. — Nima uchun endi boshingizga kulfat tushganda mening oldimga keldingizlar?
8 — Bo‘lar ish bo‘ldi endi, — deyishdi Gilad oqsoqollari. — Biz sening oldingga bosh egib keldik, biz bilan borib Ommon xalqiga qarshi jang qil, Giladliklarga o‘zing bosh bo‘l.
9 Yiftox Gilad oqsoqollariga shunday dedi:
— Xo‘p, mayli, sizlarga qo‘shilib, Ommon xalqiga qarshi jang qildim ham deylik. Bordi–yu, Egam dushmanlarni qo‘limga bersa, men sizlarga hukmronlik qilaman.
10 Gilad oqsoqollari esa Yiftoxni ishontirib:
— Xudo shohid, hammasi aytganingday bo‘ladi, — dedilar.

11 Yiftox Gilad oqsoqollari bilan ketdi. Xalq uni hokim va lashkarboshi qilib tayinladi.
Yiftox esa qo‘ygan shartlarini Mispaxda* Egamizning huzurida qayd qildi.
12 Yiftox Ommon shohiga choparlarni yuborib dedi: “Oramizda nima bo‘lib o‘tgan
ediki, sen mening yurtimga jang qilib kelding?” 13 Ommon shohi Yiftox choparlariga
shunday javob berdi: “Isroil xalqi Misrdan chiqib kelganda, janubdagi Arnon soyligidan
to shimoldagi Yavoq daryosigacha va g‘arbdagi Iordan daryosigacha bo‘lgan hamma
yerlarimni tortib olgan edi. Borib Yiftoxga aytinglar, yerlarimni menga tinchgina
qaytarib bersin.”
14 Yiftox yana choparlarini Ommon shohiga yuborib 15 dedi:

“Isroil xalqi na Mo‘ab, na Ommon yerlarini tortib olgan. 16 Ular Misrdan
chiqqandan keyin, Qizil dengiz* tomon sahrodan yurib, Kadeshga* kelgan edilar.
17 Shunda Edom shohi huzuriga elchilar jo‘natib, Edom yurti orqali o‘tib ketishga
ijozat so‘radilar. Ammo Edom shohi quloq solmadi. Ular Mo‘ab shohidan ham
ijozat so‘radilar, biroq u ham rozi bo‘lmagandan keyin, Kadeshda qoldilar.
18 Keyin ular sahroga yo‘l olib, Edom va Mo‘ab yurtlarini aylanib o‘tdilar. Mo‘ab
hududining sharqiy chegarasi bo‘ylab yurib, qarorgohni Arnon soyligining narigi
qirg‘og‘ida qurdilar. Arnon soyligi Mo‘abning chegarasi bo‘lgani uchun, ular
daryodan o‘tmadilar, Mo‘ab yurtiga oyoqlarini ham bosmadilar.
19 So‘ng elchilarini Xashbonda hukmronlik qilgan Amor xalqining shohi Sixo‘n
oldiga yuborib, hududingizdan yurtimizga o‘tib ketaylik, deb ijozat so‘radilar.
20 Ammo shoh Sixo‘n rozi bo‘lmadi. U barcha odamlarini yig‘di–da, qarorgohini
Yaxazda joylashtirib, Isroil xalqiga hujum qildi. 21 Ammo Isroil xalqining Xudosi
— Egamiz Sixo‘nni barcha odamlari bilan Isroil xalqining qo‘liga berdi. Shuning
uchun Isroil xalqi o‘sha yurtda istiqomat qilgan Amor xalqining barcha yerlarini
qo‘lga kiritdi. 22 Ular Arnondan Yavoqqacha, sahrodan Iordangacha bo‘lgan Amor
xalqining barcha yerlariga ega bo‘ldilar. 23 Isroil xalqining Xudosi — Egamizning
O‘zi bu yerlarni Amor xalqidan tortib olib, O‘zining xalqi Isroilga berdi. Shunday
ekan, ularni qaytarib olishga sening hech qanday haqing yo‘q. 24 Undan ko‘ra,
xudoying Xamo‘sh bergan narsalarga egalik qil!* Biz esa Egamiz Xudo bizga
bergan hamma narsaga egalik qilamiz!
25 Nima, sening Zippur o‘g‘li Boloqdan ortiq joying bormidi?!* U Mo‘ab shohi
bo‘la turib, Isroil xalqi bilan biron marta ham tortishgan emas. Biron marta ham
bizga qarshi jang qilgan emas.
26 Isroil xalqi uch yuz yildan beri Arnon soyligining bo‘yidagi shaharlarda,
Xashbon, Aror va ularning atrofidagi qishloqlarda yashab kelmoqda. Nima uchun
shu paytgacha o‘sha yerlarni qaytarib olmading?! 27 Men senga hech qanday
yomonlik qilmadim, sen esa menga qarshi jang qilmoqchi bo‘lib noto‘g‘ri ish
qilyapsan. Xudoga soldim, Uning O‘zi bugun kim haq, kim nohaq ekanini
ko‘rsatsin.”

28 Ammo Ommon shohi Yiftoxning so‘zlarini eshitishni ham xohlamadi.
29 Egamizning Ruhi Yiftoxni qamrab oldi. Yiftox Gilad va Manashe yerlaridan o‘tib,
Giladdagi Mispax shahriga yetib bordi. U yerdan yo‘lida davom etib, Ommon yurti
tomon yurdi. 30 So‘ng qasam ichib, Egamizga dedi: “Agar jangda Ommon xalqini

yengishimga yordam bersang, 31 uyimga eson–omon qaytib borganimdan so‘ng meni
qarshilab chiqqan birinchi tirik jonni Senga qurbonlik qilib kuydiraman.” 32 Yiftox
lashkari bilan Ommon xalqining ustiga bostirib borib, jang qildi. Egamiz Ommon xalqini
Yiftoxga taslim qildi. 33 Yiftox Arordan Minnit atrofigacha bo‘lgan yigirmata shaharni va
Ovil–Karomgacha bo‘lgan barcha qishloqlarni vayron qildi. Katta talafot ko‘rgan Ommon
xalqi Isroil xalqiga bo‘ysundi.

Yiftoxning qizi

34 Yiftox Mispaxdagi o‘z uyiga qaytib kelganda, qizi childirma chalib o‘ynaganicha,
uni qarshilab chiqdi. Bu qiz uning yolg‘iz farzandi edi. 35 Yiftox uni ko‘rgach, qayg‘u–
alamdan kiyimlarini yirtib:

— Voy qizim! Nima qilib qo‘yding?! — dedi. — Yurak–bag‘rimni qon qilding–ku!
Men Egamizga qasam ichgan edim, endi so‘zimni qaytib ololmayman!

36 — Otajon, — dedi qizi, — Egamizga so‘z bergan bo‘lsangiz, zinhor so‘zingizdan
qaytmang, chunki Egamiz sizga dushmaningiz — Ommon xalqi ustidan g‘alaba berdi.
37 Mening esa birgina tilagim bor. Menga ikki oy muhlat bersangiz, men dugonalarim
bilan toqqa chiqib, u yerda yoshligim xazon bo‘lganidan qayg‘uray. Chunki men endi
hech qachon turmushga chiqmayman.

38 Yiftox unga ijozat berib, ikki oyga toqqa jo‘natib yubordi. Qiz dugonalari bilan
toqqa chiqib, qayg‘urib yig‘ladi. 39 Ikki oy o‘tgach, otasining yoniga qaytib keldi. Yiftox
Egamizga bergan va’dasiga vafo qildi. Qiz bokira edi.

Shundan keyin Isroilda bir odat paydo bo‘ldi: 40 har yili Isroil qizlari tog‘larga chiqib,
to‘rt kun davomida Giladlik Yiftoxning qizi uchun motam tutadigan bo‘lishdi.

12–BOB

Efrayim qabilasi va Yiftox

1 Efrayim qabilasi lashkarini to‘plab, Iordan daryosining narigi qirg‘og‘idagi Zofunga
o‘tib Yiftoxga do‘q qildi:

— Nega sen Ommon xalqiga qarshi jang qilganingda bizni ham chaqirmading? Shu
qilganing uchun biz seni uyingga qo‘shib yondirib yuboramiz!

2 — Men sizlarni yordamga chaqirgan edim–ku, — dedi Yiftox. — O‘shanda, bizga
jabr–zulm o‘tkazgan Ommon xalqi bilan qattiq janjallashib qolganimda, o‘zingiz menga
yordam bermadingiz–ku! 3 Sizlar menga yordam bermasligingizni bila turib, jonimni
xatar ostiga qo‘ydim–da, Ommon xalqining ustiga bostirib borib hujum qildim. Egamiz
esa ularni mening qo‘limga berdi. Nima uchun endi sizlar kelib menga qarshi urush
qilmoqchisizlar?!

4 Efrayim qabilasidan bo‘lganlar Gilad avlodini haqoratlab: “Giladliklar kim bo‘libdi?!
Ular bor–yo‘g‘i Efrayim qochoqlari–ku, ular hatto Efrayim va Manashe yerlarida yashab
yurishibdi”, deb aytgan edilar. Shuning uchun Yiftox Gilad avlodidan bo‘lgan barcha
erkaklarni yig‘ib, Efrayim qabilasi bilan jang qildi. Efrayim qabilasi bu jangda mag‘lub
bo‘ldi.

5 Efrayim qabilasining omon qolgan jangchilarini qo‘lga tushirish uchun Yiftox
Iordan daryosining kechuv joylariga soqchilarni qo‘ydi. Qachonki Efrayim
qochoqlaridan biri kelib: “O‘tib ketay”, deb ruxsat so‘raganda, soqchilar: “Mabodo
Efrayim qabilasidanmasmisan?” deya savol berishardi. Qochoq: “Yo‘q”, deb javob

bergach, 6 ular unga: “Unday bo‘lsa, Shibbolet, degin”, deyishar edi. O‘sha odam: “Sibbolet”, deb aytar edi, chunki Efrayim qabilasidagilar “Shibbolet” so‘zini to‘g‘ri talaffuz qila olmas edilar. “Sibbolet” degan odamni soqchilar Iordan kechuv joyining o‘zidayoq o‘ldirishardi. O‘sha kuni Efrayim qabilasidan qirq ikki ming nafar odam halok bo‘ldi.

7 Giladlik Yiftox olti yil Isroil xalqiga hakam* bo‘ldi. So‘ng olamdan ko‘z yumib, Gilad o‘lkasidagi shaharlarning birida dafn qilindi.

Ibsan, Elo‘n va Abdo‘n

8 Undan keyin Isroil xalqiga Baytlahmlik* Ibsan hakam bo‘ldi. 9 Uning o‘ttiz o‘g‘li bilan o‘ttiz qizi bor edi. U qizlarini urug‘idan tashqariga uzatib, o‘g‘illariga kelinlarni ham boshqa urug‘lardan olib bergandi. Ibsan yetti yil Isroil xalqiga hakam bo‘ldi. 10 So‘ng olamdan o‘tib, Baytlahmda dafn qilindi.

11 Undan keyin Zabulun qabilasidan bo‘lgan Elo‘n ismli bir kishi hakam bo‘ldi. U o‘n yil davomida Isroilga rahnamolik qildi. 12 Elo‘n olamdan ko‘z yumdi va Zabulun hududidagi Oyjavlonda dafn qilindi.

13 Undan keyin Piratonlik Xilliyolning o‘g‘li Abdo‘n hakam bo‘ldi. 14 Uning qirqta o‘g‘li va o‘ttizta o‘g‘il nabirasi bor edi. Ular yetmishta eshakni minib yurishardi*. Abdo‘n sakkiz yil Isroil xalqiga hakam bo‘ldi. 15 So‘ng Abdo‘n ham olamdan o‘tdi va Efrayim qirlaridagi ona shahri Piratonda dafn etildi. Ilgarilari o‘sha joylar Omolek xalqiga tegishli bo‘lgan.

13–BOB

Shimsho‘nning tug‘ilishi

1 Isroil xalqi yana Egamizning oldida qabih ishlar qilgani uchun, Egamiz ularni qirq yilga Filist xalqining qo‘liga berdi.

2 O‘sha zamonda Zoroxlik bir odam bor edi. U Dan qabilasidan* bo‘lib, ismi Monuvax edi. Uning xotini bepusht bo‘lib, farzandi yo‘q edi. 3 Bir kuni Egamizning farishtasi ayolga zohir bo‘lib shunday dedi: “Sen shu paytgacha bola ko‘rishga ojiz eding, ammo ko‘p o‘tmay sen homilador bo‘lib, o‘g‘il tug‘asan. 4 Sharob va o‘tkir ichimliklarni endi icha ko‘rma, harom narsani ham yema, 5 chunki sen homilador bo‘lib, o‘g‘il ko‘rasan. Bola tug‘ilishi bilanoq Xudoga nazr qilingay*, shuning uchun bolaning boshiga ustara tegmasin. Isroilni Filistlarning qo‘lidan ozod qilishni boshlaydigan o‘shadir.” 6 Keyin ayol erining oldiga borib dedi: “Oldimga Xudoning bir odami keldi, uning ko‘rinishi xuddi Xudoning farishtasiga o‘xshagan juda qo‘rqinchli edi. Uning qayerdan kelganini so‘ramabman. O‘zi ham menga ismini aytmadi. 7 Uning gapiga qaraganda, men homilador bo‘lib, o‘g‘il ko‘rar ekanman. Bola tug‘ilishi bilanoq bir umrga Xudoga nazr qilinar ekan, shuning uchun men sharobni ham, o‘tkir ichimlikni ham, harom narsani ham og‘zimga olishim mumkin emas ekan.”

8 “Yo Rabbiy, — deya Egamizga yolvordi Monuvax, — o‘sha odamingni yana oldimizga yuborishingni iltijo qilib so‘rayman. U kelib, bo‘lajak o‘g‘limizga nima qilishimiz kerakligini o‘rgatib ketsin.”

9 Monuvaxning ibodati ijobat bo‘ldi. Ayol dalada o‘tirgan bir paytda Xudoning farishtasi yana ayolning oldiga keldi. Ammo o‘sha paytda Monuvax u yerda yo‘q edi. 10 Ayol shoshib–pishib erining oldiga yugurdi–da: “Tunov kun oldimga kelgan odam

yana menga zohir bo‘ldi!” — deb aytdi. 11 Monuvax turib xotiniga ergashdi. O‘sha odamning oldiga kelib:

— Bu ayolga gapirgan sizmidingiz? — deb so‘radi.

— Ha, men edim, — deya javob berdi u.

12 — Aytganlaringiz amalga oshganidan so‘ng, bola qay tarzda yashashi kerak? U nima ish qiladi? — deb so‘radi Monuvax.

13 Egamizning farishtasi Monuvaxga shunday deb javob berdi:

— Xotining aytganlarimning hammasini so‘zsiz bajarsin. 14 Uzumdan tayyorlangan bironta narsani ham og‘ziga olmasin. Sharob va o‘tkir ichimliklarni ichmasin, hech qanday harom narsa yemasin. Aytganlarimning hammasiga rioya qilsin.

15 Monuvax Egamizning farishtasiga:

— Bir oz kutib tursangiz, sizga bir uloqcha tayyorlab bersam, — dedi.

16 — Kutganim bilan, baribir, taomingni yemayman, — dedi Egamizning farishtasi. — Lekin uloqchani kuydiriladigan qurbonlik qilmoqchi bo‘lsang, uni Egamizga baxshida et.

Monuvax u Egamizning farishtasi ekanligini bilmagandi.

17 Keyin Monuvax Egamizning farishtasiga:

— Bizga ismingizni ayting. Toki aytganlaringiz ro‘yobga chiqqanda, sizni duo qilib yuraylik, — dedi.

18 Egamizning farishtasi esa:

— Nega ismimni so‘rayapsan? Aytganim bilan baribir unga aqling yetmaydi, — dedi.

19 Monuvax Egamizga atab, uloqchani katta bir toshning ustida qurbonlik qilib kuydirdi, unga qo‘shib don nazri ham kuydirdi. Shu onda Monuvax va uning xotini oldida Egamiz ajoyib bir mo‘jiza yaratdi: 20 qurbongoh alangasi osmonga chirmashayotgan edi. Egamizning farishtasi ham alangaga qo‘shilib yuqoriga ko‘tarilib ketdi. Buni ko‘rgan Monuvax bilan xotini yerga muk tushishdi. 21 Farishta ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi–yu, boshqa ularga ko‘rinmadi. Shundan keyin Monuvax o‘sha odam Egamizning farishtasi ekanligini angladi. 22 Monuvax xotiniga:

— Biz o‘lamiz, chunki biz Xudoni ko‘rdik!* — dedi.

23 — Agar Egamiz bizni o‘ldirmoqchi bo‘lganda, don nazri va qurbonligimizni qabul qilmagan bo‘lardi, — dedi xotini. — Bu mo‘jizalarni bizga ko‘rsatib, bunday narsalarni aytib o‘tirmagan bo‘lardi.

24 Ayol o‘g‘il ko‘rdi, uning ismini Shimsho‘n qo‘ydi. Bola katta bo‘ldi, Xudo esa uni yorlaqadi. 25 Shimsho‘n Zorox bilan Eshtoyo‘l shaharlari* orasidagi Dan qabilasining qarorgohida* bo‘lganda, Egamizning Ruhi uni boshqara boshladi.

14–BOB

Shimsho‘n va Timnaxlik ayol

1 Bir kuni Shimsho‘n Timnax degan shaharga bordi. Timnaxda u bir Filist qizni ko‘rib qoldi. 2 Uyiga qaytib kelgach, ota–onasiga shunday dedi:

— Men Timnaxda bir Filist qizni ko‘rdim. Uni menga olib beringlar.

3 — O‘z xalqimiz orasida qiz qurib qolibdimi?! Endi borib sunnatsiz Filistlardan qiz olishimiz qolgandi, — deb javob berdi ular.

Ammo Shimsho‘n otasiga:

— Menga o‘sha qizni olib bering, men uni yoqtirib qoldim, — deb turib oldi.
4 Bu Egamizning xohishi edi, ammo Shimsho‘nning ota–onasi bundan bexabar edilar.
Egamiz Filistlarga qarshi jang qilish uchun bironta bahona qidirayotgan edi. O‘sha
zamonda Filistlar Isroilda hukmronlik qilardilar.
5 Shimsho‘n ota–onasi bilan Timnaxga yo‘l oldi. Ular Timnax uzumzorlariga
yaqinlashganlarida, birdan Shimsho‘n oldidan bir sher chiqib qolib, o‘kirganicha unga
tashlanmoqchi bo‘ldi. 6 O‘sha zahoti Egamizning Ruhi Shimsho‘nni qamrab olib, kuchini
oshirdi. Shimsho‘n sherni, xuddi uloqchani parchalaganday, qo‘llari bilan osongina
ikkiga bo‘lib tashladi. Ammo bo‘lib o‘tgan voqea haqida ota–onasiga og‘iz ham ochmadi.
7 So‘ng Shimsho‘n qizning oldiga borib, u bilan gaplashdi, qiz Shimsho‘nga nihoyatda
xush keldi. 8 Ko‘p o‘tmay Shimsho‘n qizga uylanmoqchi bo‘lib, Timnaxga qaytib bordi.
Yo‘l–yo‘lakay sherning o‘ligini ko‘rib ketay deb, o‘sha tomon yo‘l soldi. Qarasa, sherning
murdasida asalarining uyasi bilan asal bor ekan. 9 U bir hovuch asal olib, yo‘l–yo‘lakay
yeb ketdi. Ota–onasining oldiga kelganda, ularga ham yeb ko‘rgani berdi, lekin asalni
sherning murdasidan olganini aytmadi*.
10 Shimsho‘nning otasi kelinini ko‘rmoqchi bo‘lib, qudasining uyiga kirdi. Shimsho‘n
o‘sha yerda to‘y munosabati bilan katta bir ziyofat berdi. O‘sha vaqtdagi urf–odatlar
bo‘yicha, kuyovlar katta ziyofatlar berishardi. 11 Shimsho‘n ziyofat berish uchun
Timnaxga borganda, Filistlar uning oldiga kuyov navkar qilib, o‘ttizta yigitni yubordilar.
12 Shimsho‘n ularga:
— Kelinglar, sizlarga bir topishmoq aytayin, — dedi. — Agar uni topib, ziyofatning
yetti kuni ichida menga tushuntirib bersangizlar, har biringizga bittadan kimxob to‘n va
bir sidradan kiyim–bosh beraman. 13 Bordi–yu, topishmog‘imni topolmasangizlar, sizlar
menga o‘ttizta kimxob to‘n bilan o‘ttiz sidra kiyim–bosh berasizlar.
Shunda ular:
— Qani, topishmog‘ingni ayt, uni eshitaylik–chi, — deyishdi.
14 Shimsho‘n topishmog‘ini aytdi:

“Xo‘randaning ichidan xo‘rak chiqdi,
Kuchlining ichidan shirinlik chiqdi.”

Oradan uch kun o‘tdi, ammo Filist yigitlari topishmoqni topolmadilar. 15 Oxiri,
yettinchi* kuni Shimsho‘nning qaylig‘iga do‘q qilib: “Sizlar bizni shilmoqchi bo‘lib bu
yerga taklif qilganmidingizlar?! — dedilar. — Bo‘l, eringni aldab–suldab topishmoqning
ma’nosini bizga bilib ber, bo‘lmasa seni ham, otangning xonadonini ham yondirib
yuboramiz.” 16 Shunda kelinchak Shimsho‘nning oldiga borib rosa yig‘ladi.
— Sen meni yomon ko‘rar ekansan! — deya xarxasha qildi u. — Meni zarracha bo‘lsa
ham yaxshi ko‘rganingda edi, topishmoqning javobini allaqachon aytgan bo‘lar eding.
— Menga qara, — dedi unga Shimsho‘n. — Buni ota–onamga ham aytmagan bo‘lsam,
nega senga aytar ekanman?!
17 Ziyofat yetti kun davom etgan bo‘lsa, o‘sha yetti kun davomida kelin unga xiralik
qilib yig‘layverdi. Yettinchi kuni Shimsho‘nning yuragini shu qadar ezib yubordiki, u
toqat qila olmay topishmoqning javobini aytib berdi. Qiz javobni darhol Filist yigitlariga
yetkazdi. 18 O‘sha kuni qosh qoraymasdan oldin yigitlar Shimsho‘nning oldiga kelib,
topishmoqning javobini aytdilar:

“Asaldan shirin nima bor?!
Sherdan kuchli nima bor?!”

Shimsho‘n: “Agar g‘unajinimni ishga solmaganlaringda, topishmog‘imni topolmas edilaring”, — dedi.

19 So‘ng Egamizning Ruhi Shimsho‘nni qamrab olib, uning kuchini yanada oshirdi. Shimsho‘n Ashqalon shahriga* ketdi. U yerda o‘ttiz nafar Ashqalonlik odamni o‘ldirib, kiyim–boshlarini yechib oldi. O‘sha kiyim–boshlarni topishmoqning javobini aytganlarga berdi–yu, jahl ustida otasining uyiga qaytib ketdi. 20 Kelinning otasi esa qizini Shimsho‘nning kuyov jo‘rasiga uzatib yubordi.

15–BOB

1 Oradan vaqt o‘tdi. Bug‘doy o‘rimi paytida, Shimsho‘n bir uloqcha olib, xotinining oldiga bordi. U qaynatasiga:

— Men xotinimning oldiga kirmoqchiman, — dedi.

Qaynatasi esa Shimsho‘nni ichkariga kirgizmadi.

2 — Sen qizimni tashlab ketding, deb o‘ylagandim, — dedi u. — Shuning uchun uni kuyov jo‘rangga uzatib yubordim. Qara, kenja qizim undan ham chiroyliroq. Kel, uning o‘rniga singlisini ola qol.

3 — Bu safar Filistlarga yomonlik qilsam, aybga buyurmaysiz, — deb chiqib ketdi Shimsho‘n.

4 Shimsho‘n uch yuzta tulki ushlab keldi. Tulkilarni juft–juft qilib, dumlarini bir–biriga bog‘ladi–da, orasiga bittadan mash’ala qistirdi. 5 So‘ng mash’alalarni yoqib, tulkilarni Filistlarning bug‘doyzorlariga qo‘yib yubordi. Bug‘doyzor va don g‘aramlarini alanga oldi–yu, Filistlarning uzumzorlari va zaytun bog‘larini yamladi. 6 Filistlar: “Buni kim qildi?” deb surishtira boshladilar. “Buni Timnaxlik bir odamning kuyovi, Shimsho‘n qildi, — dedi bir kishi. — U o‘sha Timnaxlikning qiziga uylangan ekan, qaynatasi esa qizini kuyovning jo‘rasiga uzatib yuboribdi.” Shunda Filistlar kelib, o‘sha juvon bilan otasining xonadonini* yoqib yuborishdi. 7 Shimsho‘n bundan xabardor bo‘lgach, Filistlarning oldiga borib: “Ont ichib aytamanki, shu qilmishlaringiz uchun sizlardan o‘ch olmagunimcha qo‘ymayman!” — dedi. 8 Shimsho‘n ularni shafqatsizlarcha qirib tashladi. Keyin esa u yerlarni tark etib, Etom qoyasidagi* bir g‘orga borib yashadi.

Shimsho‘n Filistlarni yengadi

9 Ko‘p o‘tmay Filistlar Yahudoda qarorgoh qurib, Lexi* shahrini bosib olishdi. 10 Yahudo odamlari: “Nima uchun bizga hujum qildingizlar?” deb so‘radilar. Ular esa: “Biz Shimsho‘nni qo‘lga olmoqchimiz. Bizga qilgan yomonligini qaytarib o‘z boshiga solmoqchimiz”, deb javob berishdi. 11 Yahudo qabilasidan uch mingta odam Etom qoyasiga borib Shimsho‘nga:

— Filistlar bizga hukmronlik qilishlarini bilmaysanmi? — dedilar. — Sen boshimizga bitgan balo bo‘lding–ku!

Shimsho‘n javob berib dedi:

— Men qilmishlariga yarasha jazosini berdim, xolos.

12 — Biz seni olib ketgani keldik, — dedi Yahudo odamlari. — Seni bog‘lab Filistlarga

bermoqchimiz.

— Xo‘p, mayli, — dedi Shimsho‘n. — Ammo sizlar meni o‘ldirmaslikka so‘z beringlar.

13 — Biz seni o‘ldirmaymiz, — deb so‘z berdi ular. — Biz seni bog‘lab, ularga topshirsak bo‘ldi.

Yahudo odamlari Shimsho‘nni ikkita yangi arqon bilan bog‘lab, shaharga olib keldilar. 14 Shimsho‘n Lexiga kelganda, Filistlar uni qiy–chuv bilan qarshilab olishdi. Shu zahoti Egamizning Ruhi Shimsho‘nni qamrab olib, yanada kuchini oshirdi. Shimsho‘n qo‘llaridagi arqonlarni kuygan zig‘ir tolalarini uzayotganday osonlikcha uzib tashladi. 15 So‘ng atrofiga bir nazar solib, eshakning jag‘ suyagini ko‘rib qoldi. Jag‘ suyagi oftobda qurib ketmagani uchun qattiq va og‘ir edi. Shimsho‘n suyakni olib, Filistlarni savalay boshladi. O‘sha kuni u ming nafar odamni o‘ldirdi. 16 Shunda Shimsho‘n dedi:

“Eshakning jag‘ suyagi bilan mingta odamni o‘ldirdim.
Eshakning jag‘ suyagi bilan ularni uyum–uyum* qildim.”

17 U gapini tugatib bo‘lgach, suyakni uloqtirib yubordi–da, o‘sha joyni Ramat–Lexi* deb atadi.

18 Shimsho‘n rosa chanqab ketdi, so‘ng Egamizga iltijo qilib dedi: “Sen qulingga shunday buyuk bir g‘alabani berding. Hozir esa men tashnalikdan ado bo‘lib, sunnatsizlarning qo‘liga tushamanmi?!” 19 Xudo Lexida yer ostidagi bo‘shliqni yorib, u yerdan suv chiqardi. Shimsho‘n suv ichib o‘ziga keldi. Shuning uchun buloq En–Xaqqor* deb ataldi, u bugunga qadar* Lexidadir.

20 Filistlar hukmronligi davrida Shimsho‘n Isroil xalqiga yigirma yil hakamlik* qildi.

16–BOB

Shimsho‘n G‘azoda

1 Bir kuni Shimsho‘n Filistlarning shahri G‘azoga bordi. U yerda bir fohisha ayolni ko‘rib uning oldiga kirdi. 2 G‘azoliklar Shimsho‘n kelganini bilgach, o‘sha joyni o‘rab olishdi. Ularning ba’zilari shahar darvozasida* yashirinib, kechasi bilan uni poylab turishdi. Ular tun bo‘yi pisib, “Qani, tong yorishguncha kutib turaylik–chi, keyin uni o‘ldiramiz”, deb o‘ylayotgan edilar. 3 Shimsho‘n esa fohishanikida faqatgina yarim kechagacha bo‘ldi. U tun yarmida turib, shahar darvozasini yondorlari bilan sug‘urib oldi–da, barcha tambalari bilan yelkasiga ortib, Xevron* ro‘parasidagi tepalikning ustiga olib chiqdi.

Shimsho‘n va Dalila

4 Ko‘p o‘tmay Shimsho‘n So‘rax vodiysida yashaydigan Dalila ismli bir juvonni yaxshi ko‘rib qoldi. 5 Filist beklari* juvonning oldiga kelib, shunday dedilar: “Shimsho‘n bunday buyuk kuchni qayerdan olarkan? Uni bog‘lab bo‘ysundirish yo‘lini biz uchun bilib bersang, har birimiz senga 1100 bo‘lakdan kumush* beramiz.”

6 Bir kuni Dalila Shimsho‘nga yalinib:

— Iltimos, buyuk kuchingiz sirini menga aytib bering, — dedi. — Qanday qilib sizni bog‘lab, bo‘ysundirib bo‘ladi?

7 Shimsho‘n unga shunday javob berdi:

— Agar meni yettita yangi, qurib ulgurmagan kamon ipi* bilan bog‘lab tashlashsa,

men el qatori kuchsiz bo‘lib qolaman.

8 Shunda Filist beklari juvonga yettita yangi, hali qurib ulgurmagan kamon ipini
keltirdilar. Dalila iplar bilan Shimsho‘nni bog‘lab qo‘ydi. 9 Shu payt ichkari xonada bir
nechta odam poylab turar edi. Juvon Shimsho‘nga qarab:

— Shimsho‘n! Filistlar kelyapti! — deb baqirdi.

Ammo olov ipak tolalarini qanday yo‘q qilsa, Shimsho‘n ham kamon iplarini xuddi
shunday uzib tashladi. Shimsho‘nning siri sirligicha qoldi.

10 — Siz meni aldab ahmoq qildingiz, — dedi unga Dalila. — Iltimos, sizni qanday
qilib bog‘lash kerakligini menga ayta qoling.

11 — Agar meni yangi, ishlatilmagan arqonlar bilan bog‘lashsa, men el qatori kuchsiz
bo‘lib qolaman, — dedi Shimsho‘n.

12 Shunda Dalila yangi arqonlarni oldi–da, uni bog‘lab:

— Shimsho‘n! Filistlar kelyapti! — deb baqirdi, odamlar esa ichkari xonada poylab
turishar edi.

Ammo Shimsho‘n qo‘llaridagi arqonlarni ipni uzganday uzib tashladi.

13 — Shu paytgacha meni aldab, ahmoq qilib keldingiz! — dedi Dalila. — Menga
ayting–chi, sizni qanday qilib bog‘lab tashlasa bo‘ladi?

— Agar sochimning yettita tutamini dastgohdagi matoga qo‘shib to‘qib, moki
yordamida yaxshilab mahkamlab qo‘ysang, men el qatori kuchsiz bo‘lib qolaman, —
dedi Shimsho‘n.

14 Shimsho‘n uxlab yotganda, Dalila uning yetti tutam sochini dastgohdagi matoga
qo‘shib to‘qidi–da*, moki yordamida yaxshilab mahkamlab qo‘ydi. Keyin esa:

— Shimsho‘n! Filistlar kelyapti! — deb baqirdi.

Shimsho‘n uxlab yotgan joyida sakrab turdi–da, mokini uloqtirib, matoni dastgohi
bilan sochidan yulqib tashladi.

15 Dalila unga dedi:

— Dilingiz mendan yiroq ekan, qanday qilib menga: “Seni sevaman”, deysiz?! Siz
meni uch marta aldadingiz, kuchingiz sirini menga aytmadingiz.

16 Dalila har kuni yalinaverib, Shimsho‘nning quloq–miyasini yedi. Bundan bezor
bo‘lgan 17 Shimsho‘n butun sirini aytib berdi:

— Biron marta ham ustara boshimga tegmagan. Chunki onamning qornidayoq
Xudoga nazr qilinganman*. Agar sochimni oldirsam, kuchim yo‘q bo‘ladi va men el
qatori kuchsiz bo‘lib qolaman.

18 Dalila Shimsho‘n unga butun sirini oshkor qilganini fahmlagach, Filist beklariga
xabar jo‘natib dedi: “Bu safar yana bir bor kelib ketinglar, chunki u menga butun sirini
oshkor qildi.” Shunda Filistlar Dalilaga va’da qilgan pullarini olib, uning oldiga bordilar.
19 Dalila Shimsho‘nni tizzasida uxlatib qo‘ydi–da, bir odamni chaqirib uning yetti tutam
sochini qirqtirib tashladi. Shimsho‘n zaiflashib, kuchdan qoldi. 20 Dalila esa:

— Shimsho‘n! Filistlar kelyapti! — deb baqirdi.

Shimsho‘n uyqudan turib, har safargidek o‘zimni xalos qilaman, deb o‘yladi. Ammo
Egamiz uni tark etgan edi, Shimsho‘n esa bundan bexabar edi. 21 Filistlar uni qo‘lga olib,
ko‘zlarini o‘yib tashlashdi. So‘ng G‘azoga olib ketib, zanjirband qilishdi. Shimsho‘n
zindondagi tegirmon toshini yurgizib, g‘alla yanchar edi. 22 Shimsho‘nning sochlari yana
o‘sa boshladi.

Shimshoʻnning oʻlimi

23 Bayramga yigʻilgan Filist beklari: “Xudoyimiz Doʻgʻon dushmanimiz Shimshoʻnning
ustidan bizga gʻalaba berdi!” deya shodu xurramlik bilan xudosiga koʻp qurbonliklar
keltirdilar. 24 Xalq Shimshoʻnni koʻrgach: “Yurtimizni xarob qilgan, talay sipohlarimizni
oʻldirgan dushmanni xudoyimiz qoʻlimizga berdi”, deya xudosiga hamdu sanolar ayta
boshladi. 25 Mast, vaqti chogʻ boʻlgan odamlar: “Shimshoʻnni keltiringlar, biz uchun bir
oʻynab bersin!” deb baqira boshladilar. Shimshoʻnni zindondan keltirishdi, odamlar uni
tomosha qilsin deb, ustunlar oʻrtasiga turgʻizib qoʻyishdi. 26 Shimshoʻn uni yetaklab
kelgan yigitga dedi: “Binoni koʻtarib turgan ustunlarni paypaslab koʻray. Ularga suyanib
olmoqchiman.” 27 Uy erkagu ayol bilan toʻlgan, hamma Filist beklari oʻsha yerda edi.
Tomning ustidagi ochiq ayvonda uch mingga yaqin odam Shimshoʻnni tomosha
qilayotgan edi.

28 Shimshoʻn Egamizga iltijo qilib, dedi: “Yo Egam Rabbiy, meni esla. Ey Xudo, yana
bir bor menga kuch ber, men Filistlardan ikki koʻzim uchun yoppasiga oʻch olay.”
29 Shimshoʻn uyni koʻtarib turgan oʻrtadagi ikki ustun orasida turgan edi. U oʻng qoʻlini
biriga, chap qoʻlini ikkinchisiga qoʻydi–da, tirandi. 30 Keyin qichqirib: “Oʻlsam, Filistlar
bilan oʻlay!” — dedi–yu, kuchi boricha ustunlarni itardi. Uy qulab, u yerdagi beklar bilan
odamlarni bosib qoldi. Shunday qilib, oʻsha joyda oʻlgan odamlarning soni Shimshoʻn
hayot davrida oʻldirgan odamlarning sonidan ziyoda edi.

31 Shimshoʻnning aka–ukalari bilan butun oilasi Gʻazoga kelib, uning jasadini uyga
olib ketishdi. Keyin otasi Monuvaxning Zorox bilan Eshtoyoʻl shaharlari* orasidagi
xilxonasiga dafn qilishdi. Shimshoʻn yigirma yil davomida Isroil xalqiga hakam* boʻlgan
edi.

17–BOB

Mixoning butlari

1 Efrayim qirlarida Mixo degan bir odam yashardi. 2 Bir kuni u onasiga shunday dedi:

— Ona, esingizdami, 1100 boʻlak kumushni* oʻgʻirlatib qoʻygan edingiz. Oʻshanda
oʻgʻrini oldimda qargʻagansiz. Mana, oʻsha kumushingiz. Uni men olgandim.

Shunda onasi:

— Iloyim baraka topgin, oʻgʻlim! — dedi.

3 Mixo 1100 boʻlak kumushni onasiga qaytarib berdi. Onasi esa:

— Men bu kumushni bosh–koʻzingdan xayr–sadaqa qilib, Egamga bagʻishlayman, —
dedi, — undan quyma va oʻyma butlar yasattiraman. Oʻsha kumush oʻzingga qaytib
keladi, oʻgʻlim.

4 Mixo qaytarib bergan kumush boʻlaklarining 200 tasini* onasi zargarga berdi.
Zargar but yasab, uni kumush bilan qopladi*. Tayyor boʻlgan but Mixoning uyiga
oʻrnatildi. 5 Mixoning bir sajdagohi bor edi. U ruhoniylar kiyadigan maxsus libos*
tiktirib, yana bir nechta xonaki sanamlar* yasattirdi, soʻng oʻgʻillaridan birini oʻzining
sajdagohiga ruhoniy qilib tayinladi. 6 Oʻsha davrda Isroilda shoh yoʻq edi. Har bir odam
bilganini qilar edi.

7 Yahudo hududidagi Baytlahm shahrida* bir yosh levi* yashardi. 8 Bu odam oʻziga
boshqa joydan boshpana topmoqchi boʻlib, Baytlahmni tark etdi. U yoʻl yurib, Efrayim
qirlaridagi Mixoning uyiga kelib qoldi.

9 — Qayerliksan, o‘g‘lim? — deb so‘radi undan Mixo.
— Men Yahudodagi Baytlahmdan kelgan leviman, — deb javob berdi u. — O‘zimga boshpana qidirib yuribman.
10 — Kel, menikida tura qol, — dedi Mixo. — Mening maslahatchim hamda ruhoniyim bo‘l. Men esa har yili senga o‘n bo‘lakdan kumush* to‘lab, kiyim–kechaging bilan yeguligingni beraman.
11-12 Levi Mixonikida turishga rozi bo‘ldi. Mixo uni ruhoniy qilib tayinladi. Levi Mixonikida yashab yurdi va Mixoga xuddi o‘g‘liday bo‘lib qoldi. 13 Shunda Mixo dedi: “Mana endi Egam menga baraka berishini bilaman, chunki levining o‘zi menga ruhoniy bo‘lib xizmat qilyapti.”

18–BOB

Mixo va Dan qabilasi

1 Bu voqealar sodir bo‘lgan davrda Isroilda shoh yo‘q edi. Dan qabilasi Isroil qabilalari orasida o‘ziga ulush bo‘lib tushgan yerni hanuz qo‘lga kiritmagani sababli istiqomat qilish uchun joy qidirib yurgan edi. 2 Bir kuni ular o‘z qabilasining jamiki urug‘lari orasidan beshta jangchini tanlab: “Boringlar, yurtni sinchiklab tekshirib chiqinglar”, — deya ularni Zorox va Eshtoyo‘l shaharlaridan* jo‘natib yubordilar. Bu odamlar yo‘l yurib, Efrayim qirlaridagi Mixoning uyiga kelib qolishdi va tunni o‘sha yerda o‘tkazishdi. 3 Ular Mixoning uyida bo‘lganlarida yosh levini* shevasidan tanib qolishdi–da, uning oldiga borib:
— Bu yerga qanday qilib kelib qolding? Bu yerda nima qilib yuribsan? — deb so‘rashdi.
4 U javob berib: “Mixo meni ishga oldi, ruhoniy qilib tayinladi”, — dedi. Mixo unga qilgan hamma yaxshiliklarini aytib berdi.
5 Shunda ular leviga:
— Xudoga iltijo qilib, ishimiz o‘ngidan kelish–kelmasligini bilib ber, — dedilar.
6 — Hech narsadan xavotirlanmanglar. Egamizning O‘zi sizlarga bu ishda madadkordir, — dedi ruhoniy.
7 Beshala odam yo‘lga ravona bo‘ldi. Ular Layish shahriga kelib, u yerda Sidon* aholisi kabi muloyim, xotirjam va tinch–totuv yashayotgan odamlarni ko‘rishdi. Bundan tashqari, atrofdagi xalqlardan birontasi o‘sha xalqqa xavf solmagan, yurtiga tajovuz qilmagandi. Ular Sidondan ancha uzoqda bo‘lib, atrofdagi shaharlar bilan hech qanday aloqa o‘rnatmagan edilar. 8 Beshala odam Zorox bilan Eshtoyo‘lga — o‘z urug‘–aymoqlarining oldiga qaytib borishdi.
— Bizga qanday xabar olib keldingizlar? — deb so‘radi ulardan qarindosh–urug‘lari.
9 Ular shunday javob berishdi:
— Kelinglar, Layishga hujum qilaylik! Biz ko‘rgan yurt nihoyatda yaxshi ekan. Nimaga qaqqayib turibsizlar?! Bo‘linglar, o‘sha yerga borib yurtni qo‘lga kiritaylik. 10 U yerga borganlaringizda, xotirjam yashayotgan odamlarga duch kelasizlar. Barcha narsaga mo‘l va keng bu yerni Xudo chindan ham qo‘lingizga beryapti.
11 Dan qabilasining olti yuzta odami jang aslahalari bilan qurollanib, Zorox bilan Eshtoyo‘ldan safarga otlanishdi. 12 Ular yo‘l yurib, o‘z qarorgohini Yahudodagi Xirat–Yo‘rim shahrining g‘arb tomonida qurishdi. Shuning uchun o‘sha joy bugunga qadar*

Dan qarorgohi* deb ataladi.
13 U yerdan ular Efrayim qirlari tomon yoʻl olib, Mixoning uyiga yaqinlashib qolishdi.
14 Shunda yurtni, aniqrogʻi, Layish shahrining atroflarini koʻrib chiqqan beshta odam birodarlariga deyishdi: “Bu xonadonlarning birida ruhoniylar libosi*, xonaki sanamlar* va but borligidan xabarlaringiz bormi? Nima qilishimiz kerakligini yaxshi oʻylab koʻringlar.” 15 Ular yosh levi turadigan Mixoning uyiga borib, levidan hol–ahvol soʻradilar. 16 Olti yuzta qurollangan Dan qoʻshini darvozaning yonida turgan edi.
17 Aygʻoqchilik qilgan beshta odam toʻppa–toʻgʻri ichkariga bostirib kirib, ruhoniylar libosi, xonaki sanamlar va kumush bilan qoplangan butni olmoqchi boʻldilar. Levi esa qurollangan olti yuzta odam bilan darvoza yonida qolgan edi. 18 Aygʻoqchilar Mixoning uyiga kirib, ruhoniylar libosi, xonaki sanamlar va butni olganlarini koʻrgan levi ularga:
— Bu nima qilganlaringiz? — dedi.
19 — Jim boʻl! — deb doʻq qildi ular. — Ovozingni oʻchirib biz bilan yur. Bizga maslahatchi va ruhoniy boʻl. Oʻzing oʻylab koʻr, sen bittagina xonadonga ruhoniy boʻlganing yaxshimi yoki Isroilning butun bir qabilasigami?
20 Ruhoniyga bu taklif maʼqul keldi. U ruhoniylar libosi, xonaki sanamlar va kumush bilan qoplangan butni olib, Dan odamlari bilan ketdi.
21 Dan odamlari bola–chaqalarini, chorvayu mol–mulkini oldinga oʻtkazib, safarlarini davom ettirishdi. 22 Ular Mixoning uyidan ancha uzoqlashib qolganlarida, Mixo qoʻni–qoʻshnilarini toʻpladi–da, Dan odamlarining ketidan quvib ketdi. 23 Soʻng ovozi boricha baqirib, Dan odamlarini chaqirdi. Ular esa orqaga oʻgirilib Mixoga:
— Tinchlikmi?! Shuncha odamni yetaklab kelibsan?! — dedilar.
24 — Sizlar men yasattirgan xudolar bilan ruhoniyimni olib ketib, meni ship–shiydam qildingiz–ku. Yana: “Tinchlikmi?” deganingiz nimasi?! — deya javob berdi Mixo.
25 — Ovozingni oʻchir, — dedi unga Dan odamlari. — Boʻlmasa, qoni qaynagan birodarlarimiz jagʻingni ezib, oʻzingni ham, uyingdagilarni ham yoʻq qilib yuborishadi.
26 Dan odamlari yoʻldan qolmadilar. Mixo esa ularga bas kelolmasligini koʻrib, uyiga qaytib ketdi.
27 Dan qabilasi Mixo yasattirgan narsalarni va uning xizmatida boʻlgan ruhoniyni Layishga olib bordilar. Ular Layishda tinch va xotirjam yashayotgan odamlarni qilichdan oʻtkazib, shaharga oʻt qoʻydilar. 28 Layish aholisiga najot beradigan hech kim yoʻq edi, chunki Layish Sidondan juda uzoqda boʻlib, yaqin atrofidagi shaharlar bilan esa hech qanday aloqa oʻrnatmagan edi. Layish Bayt–Rexob shahri bilan bir vodiyda joylashgan edi. Dan qabilasi shaharni tiklab, u yerda oʻrnashib oldi. 29 Shaharni esa ota–bobosi Yoqub* oʻgʻli Danning nomi bilan atadi. Dan shahrining eski nomi Layish edi. 30 Dan qabilasi oʻzi uchun Mixodan tortib olgan, kumush bilan qoplangan butni oʻrnatdi. Gershom oʻgʻli Yoʻnatan esa ularga ruhoniy boʻldi. Yoʻnatan Musoning* nabirasi edi. Isroil xalqi surgun boʻlguniga qadar*, Yoʻnatanning butun nasli ham Dan qabilasiga ruhoniylik qildi. 31 Oʻsha davrda Xudoning uyi Shiloʻ shahrida* joylashgan edi, ammo Dan qabilasi u yerga bormay, Mixo yasattirgan butga sajda qilib keldi.

19–BOB

Givo aholisi ogʻir gunoh qiladi

1 Isroilda shoh boʻlmagan oʻsha davrlarda Efrayim qirlarining kimsasiz joyida Levi

qabilasidan bir odam yashardi. U Yahudo hududidagi Baytlahm shahridan bir cho‘rini* o‘ziga xotin qilib oldi. 2 Ammo xotini unga bevafolik qilib, otasining uyiga — Yahudodagi Baytlahmga qaytib ketdi. Oradan to‘rt oy o‘tdi. 3 Levi esa u bilan yarashmoqchi bo‘lib, orqasidan bordi. U o‘zi bilan xizmatkori va bir juft eshagini olgan edi. Ular xotinining qizlik uyiga yetganlarida, levining qaynatasi ularni xursand bo‘lib qarshilab oldi. 4 U qo‘ymay, ularni uyida uch kun mehmon qildi. Ular yeb–ichib, u yerda tunadilar.
5 To‘rtinchi kuni levi barvaqt turib yo‘lga shaylandi. Qaynatasi esa unga: “Yo‘lga chiqishdan oldin choy–poy ichib oling, o‘g‘lim, quvvat bo‘ladi, keyin ketarsizlar”, — dedi.
6 Shunda ular o‘tirib, birga yeb–ichishdi. Keyin qizning otasi: “Bugun ham qolib dam olsangizlar bo‘lardi”, — dedi. 7 Levi ketmoqchi bo‘lib o‘rnidan turganda ham uni yana qo‘yarda–qo‘ymay uyida olib qoldi. 8 Beshinchi kuni levi ketmoqchi bo‘lib erta bilan saharda turganda, qizning otasi unga: “Choy–poy ichib oling, kechroq ketarsizlar”, — dedi. Ular o‘tirib yeb–ichishdi.

9 Levi xotini va xizmatkori bilan ketmoqchi bo‘lib dasturxondan turganda, qaynatasi unga shunday dedi: “Qarang, o‘g‘lim, kech bo‘lib qoldi. Shu yerda tunab qolaqolinglar. Kun ham og‘ib qolibdi. Bu yerda qolib, damingizni olinglar. Ertaga esa saharda turib uylaringizga ketarsizlar.”

10 Levi ko‘nmay yo‘lga tushdi. Xotini va xurjun ortilgan bir juft eshagi bilan yo‘l yurib Yobus shahriga, ya’ni Quddusga yetib oldi. 11 Ular Yobusga yaqinlashganlarida kech kirib qolgandi. Xizmatkor xo‘jayiniga dedi: “Keling, Yobus xalqining shahriga kirib, u yerda tunab qolaylik.” 12 “Yo‘q, — dedi xo‘jayin. — Isroil xalqiga yot bo‘lgan begonalarning shahriga kirmaymiz, undan ko‘ra, yo‘limizni davom qilib, Givoga boramiz.” 13 Levi gapida davom etib xizmatkoriga dedi: “Kel, ikkovidan biriga — Givoga yoki Ramaga* yetib olishga harakat qilaylik.” 14 Ular yo‘lda davom etib, kunbotar paytida Benyamin qabilasiga qarashli Givo shahriga yaqinlashib qolishdi. 15 So‘ng Givoda tunab qolmoqchi bo‘lib, shahar tomon yo‘l olishdi–da, borib shaharning maydonida o‘tirishdi, ammo hech kim ularni tunash uchun uyiga taklif qilmadi.

16 Oqshom kirganda, bir chol daladagi ishlarini tugatib qaytib kelayotgan edi. Givoda yashayotgan aholining aksariyat qismi Benyamin qabilasidan edi, ammo bu chol Givoga Efrayim qirlaridan kelib, endi shu yerlarda istiqomat qilayotgan edi. 17 Chol shahar maydonida o‘tirgan musofirlarni ko‘rib:

— Qayerdan kelib, qayerga ketyapsizlar? — deb so‘radi.

18 Levi shunday javob berdi:

— Biz Yahudodagi Baytlahmga borgan edik, endi esa uyimizga — Efrayim qirlaridagi olis qishlog‘imizga qaytib ketyapmiz. Yo‘lda Egamizning uyini ham ziyorat qilib ketmoqchimiz, ammo bu yerdagilarning birontasi ham tunab qolishimiz uchun bizni uyiga taklif qilmayapti. 19 Bizga turar joydan bo‘lak hech narsa kerak emas. O‘zimiz uchun non va sharobimiz bor. Eshaklarimizga ham yem–xashak g‘amlab kelganmiz.

20 — Uyimga marhamat qilinglar, — dedi chol. — Men hamma kamchiliklaringizning g‘amini yeyman. Faqat ko‘chada qolmasangizlar, bas!

21 Chol ularni uyiga olib borib, eshaklariga yem berdi. So‘ng mezbonu mehmonlar oyoqlarini yuvib* ovqatlanishdi.

22 Ular dam olib o‘tirganlarida, birdaniga shaharning yaramas odamlari uyni o‘rab olishdi–da, eshikni tars–turs urib:

— Sening uyingga kelgan odamni bu yoqqa chiqar, biz u bilan birga bo‘lishni

istaymiz! — deya uy egasiga do‘q urishdi.

23 Uyning egasi — chol ularning oldilariga chiqib:

— Yo‘q ukalarim, bunday jirkanch ish qilmanglar! — deb o‘tindi. — Bunday sharmandalik qilmanglar, axir, u mening mehmonim–ku. 24 Mana, mening bokira qizim va u kishining xotini bor. Men ularni sizlarning oldingizga olib chiqay, ularni nima qilsangiz qilinglar, ammo bu odam bilan bunday xunuk ish qilmanglar.

25 Lekin odamlar cholning gaplariga quloq solishmadi. Shunda levi xotinini itarib, ularning oldilariga chiqarib yubordi. Ular ayol bilan yotib, ertalabgacha uni zo‘rlashdi. Tong yorishayotganda esa qo‘yib yuborishdi. 26 Saharda ayol kelib, xo‘jayini tunab qolgan cholning eshigi oldida yiqildi va tong otguncha u yerda qoldi.

27 Ertalab xo‘jayini yo‘lga chiqmoqchi bo‘lib, eshiklarni ochdi. Qarasa, eshik tagida xotini qo‘llarini ostonaga uzatib yotgan ekan. 28 “Qani, tura qol, bo‘l, ketyapmiz”, — dedi u. Lekin javob bo‘lmadi*. Keyin u xotinini eshagiga ortib, uyiga yo‘l oldi. 29 U uyiga yetib kelgach, pichoq bilan xotinining jasadini o‘n ikki qismga bo‘ldi. Bo‘laklarni butun Isroil bo‘ylab Isroilning o‘n ikki qabilasiga yubordi. 30 Buni ko‘rgan har bir odam shunday deb aytardi: “Isroil xalqi Misrdan chiqqanidan beri bunday vahshiy hodisa sodir bo‘lmagan. Endi o‘ylab ko‘raylik, mulohaza qilib hukm chiqaraylik!”

20–BOB

Isroil xalqi urushga tayyorlanadi

1 Dan va Bersheba shaharlarining orasidagi keng hududda va Gilad o‘lkasida yashagan butun Isroil xalqi bir yoqadan bosh chiqarib, Egamiz huzurida Mispaxda* to‘plandi. 2 Xudo ahlining yig‘inida jamiki Isroil qabilalarining yo‘lboshchilari va 400.000 qurollangan piyoda sipoh qatnashdi. 3 Mispaxdagi yig‘in haqidagi xabar tez orada Benyamin qabilasiga ham yetib bordi.

Isroil xalqi shunday dedi:

— Bu jinoyat qanday qilib yuz berganini bizga aytib ber.

4 O‘ldirilgan ayolning eri levi javob berdi:

— Men xotinim* bilan tunamoq uchun Benyamin qabilasiga qarashli Givo shahriga bordim. 5 Kechasi Givoning ba’zi bir odamlari uyni o‘rab olishdi. Ular meni o‘ldirmoqchi bo‘lib, mening o‘rnimga xotinimni shu qadar zo‘rlashdiki, bechora jon berdi. 6 Aql bovar qilmaydigan bu razolat Isroilda sodir bo‘ldi! Shuning uchun men xotinimning jasadini bo‘lak–bo‘lak qilib, bo‘laklarni Isroil bo‘ylab jo‘natdim. 7 Endi esa birodarlarim, hammalaringiz shu haqda mulohaza qilib, biron–bir maslahat beringlar.

8 Yig‘inda ishtirok etganlar turib bir ovozdan:

— Birontamiz ham o‘z chodirimizga yoki uyimizga qaytib ketmaymiz, — dedi. 9 — Biz bunday qilamiz: Givoga qarshi jang qilishdan oldin, shaharga kim hujum qilishi kerakligini Xudodan so‘rab, qur’a tashlaymiz*. 10 Isroil xalqining o‘ndan bir qismi jangchilarni oziq–ovqat bilan ta’minlab turadi. Qolganlar esa Benyamin yeridagi Givo* aholisini Isroilda qilgan sharmandaligi uchun jazolaydi.

11 Shunday qilib, butun Isroil xalqi bir yoqadan bosh chiqarib, shaharga hujum qilish uchun to‘plandi.

12 Isroil qabilalari Benyamin qabilasi bo‘ylab odamlarni yuborib dedilar: “Ey xaloyiq, orangizdagi ayrim odamlar dahshatli bir jinoyatga qo‘l urdi. 13 Givodagi yaramaslarni

hoziroq bu yerga chiqaringlar, biz ularni o‘ldirib, Isroil xalqi orasidan yovuzlikni yo‘q qilamiz.” Ammo Benyamin qabilasi Isroil xalqining gaplariga quloq solmadi. 14 Ular shaharlaridan chiqib, Isroil xalqiga qarshi jang qilish uchun Givoga bordilar. 15 O‘sha kuni Givo shahridan bo‘lgan yetti yuzta saralangan jangchidan tashqari Benyamin qabilasining boshqa shaharlaridan kelgan qurollangan sipohlarning soni yigirma olti ming edi. 16 Bularning orasida yetti yuz nafar chapaqay askar bor edi. Ularning hammasi mohir mergan edi. Ularga bir tola sochni nishon qilib qo‘ygan taqdirda ham palaxmondan tosh otib, mo‘ljalga bexato tekkizishardi. 17 Isroil xalqi esa Benyamin qabilasidan ajralgan holda 400.000 qurollangan mohir jangchini to‘pladi.

Benyamin qabilasiga qarshi jang

18 Isroil lashkari Baytil shahridagi sajdagohga* chiqib: “Oramizdan kim birinchi bo‘lib Benyamin qabilasiga hujum qilishi kerak?” — deya Xudoga iltijo qildi.

“Yahudo qabilasi hujum qilsin”, — deb javob berdi Egamiz.

19 Keyingi kuni ertalab Isroil lashkari borib, Givo shahrining yaqinida qarorgoh qurdi. 20 So‘ng ular Benyamin jangchilariga hujum qilish uchun Givo shahrining ro‘parasida saf tortishdi. 21 Benyamin jangchilari Givodan chiqib, Isroil lashkari bilan jang qilishdi. O‘sha kuni yigirma ikki ming Isroil sipohi halok bo‘ldi. 22-23 Isroil lashkari Egamizning huzuriga borib, kechgacha faryod qildi. Ular Egamizdan: “Benyamin qarindoshimizga qarshi yana jang qilaylikmi?” — deb so‘rashdi. “Ularga hujum qilinglar”, — deb javob berdi Egamiz. Isroil lashkari ko‘tarinki ruhda ilgarigiday avvalgi joyda saf tortdi.

24 Ular ikkinchi kuni ham Benyamin jangchilariga qarshi jang qilishdi. 25 O‘sha kuni Benyamin jangchilari Givodan chiqib, yana o‘n sakkiz ming mohir Isroil sipohini o‘ldirishdi. 26 Shunda Isroil lashkari Baytilga* qaytib, yig‘i–sig‘i qildi. Ular o‘sha kuni kechgacha Egamizning huzurida o‘tirib ro‘za tutishdi. Egamiz huzurida kuydiriladigan qurbonliklar va tinchlik qurbonliklarini keltirishdi.

27-28 Xudoning Ahd sandig‘i o‘sha yerda — Baytilda turgan edi, Elazar o‘g‘li Finxaz esa Ahd sandig‘i yonida o‘z xizmatini ado etardi. Finxaz Horunning nabirasi edi.

Isroil lashkari Egamizdan: “Qarindoshimiz Benyamin qabilasiga qarshi jang qilaylikmi, yo‘qmi?” — deb so‘radi.

“Jang qilinglar, — deb javob berdi ularga Egamiz. — Ertaga Men ularni sizlarning qo‘lingizga beraman.” 29 Isroil lashkari Givoning tevarak–atrofidagi pistirmalarga odamlarni o‘tirg‘izib qo‘ydi. 30 O‘zlari esa uchinchi marta Benyamin jangchilariga qarshi jang qilish uchun Givo ro‘parasida oldingiday saf tortishdi. 31 Benyamin jangchilari urushga chiqishdi. Isroil lashkari ilgarigidek chekina boshladi. Benyamin jangchilari Isroil lashkarini ta’qib qilib, shahardan uzoqlashib qolishdi. Ular Baytil va Givoga ketadigan katta yo‘llarda va ochiq maydonlarda o‘ttiztacha Isroil sipohini o‘ldirishdi. 32 Benyamin jangchilari: “Bular oldingiday tumtaraqay bo‘lishyapti”, deb o‘ylashgan edi. Aslida esa Isroil lashkari ularni shahardan uzoqlashtirish niyatida shunday qilayotgan edi.

33 Isroil lashkarining asosiy qismi jang maydonini orqaga — Baal–Tamar shahri tomon tortdi. Shunda birdaniga Gebo tekisligidagi* pistirmada yotgan sipohlar chiqishdi. 34 Isroil lashkarining o‘n ming saralangan jangchisi Givoga hujum qildi va u yerda qattiq jang boshlandi. Benyamin jangchilari bunday falokat yuz berishini

kutishmagan edi.

35 Egamiz ularni Isroil lashkari oldida mag‘lub qildi. O‘sha kuni Isroil lashkari
qurollangan 25.100 Benyamin jangchisini o‘ldirdi. 36 Shunda Benyamin jangchilari
mag‘lubiyatga uchraganlarini tushunishdi.

Isroil lashkarining asosiy qismi Benyamin jangchilari oldida chekingan edi. Shu orqali ular Givo atrofidagi pistirmalarda o‘tirgan Isroil sipohlariga shaharga hujum qilish uchun qulay vaziyat yaratib bergan edilar. 37 Pistirmadagi sipohlar Givo tomon otildilar. Ular shahardagi bor odamni qirib tashladilar. 38 Isroil lashkarining asosiy qismi bilan pistirmadagi sipohlar o‘zaro shunday kelishib olgandilar: shahardan quyuq tutun chiqishi bilanoq, 39 Isroil lashkarining asosiy qismi orqaga qaytib jang qilishi kerak edi.

Shu orada Benyamin jangchilari o‘ttiztacha Isroil sipohini o‘ldirgan edilar. Shu sababdan ular: “Isroil lashkari ilgarigiday chekinishi aniq”, deb o‘ylagan edilar. 40 Biroq ortga qaraganlarida shahardan quyuq tutun bulut bo‘lib ko‘tarilganini va butun shahar yong‘in ostida qolganini ko‘rdilar. 41 Shunda Isroil lashkarining asosiy qismi ortiga qaytdi. Benyamin jangchilari esa mag‘lubiyatga uchraganlarini anglab, sarosimaga tushdilar. 42 Ular Isroil lashkaridan qochmoqchi bo‘lib, sahro tomon yugurdilar, ammo qirg‘indan qochib qutula olmadilar. Chunki shahardan chiqib kelayotgan sipohlar bilan Isroil lashkarining asosiy qismi ularni ikki tomondan siqib kelayotgan edi. 43 Isroil lashkari Benyamin jangchilarini qurshovga olib, Givoning sharq tomonigacha ularni to‘xtamay ta’qib qilib, o‘ldirdi. 44 Benyamin qabilasining o‘n sakkiz ming bahodir jangchisi halok bo‘ldi. 45 Boshqalari esa sahrodagi Rimmon qoyasiga qarab qochishdi. Isroil lashkari ulardan besh mingtasini katta yo‘llarda qirib tashladi, qolganlarini esa Gido‘mgacha ta’qib qilib, yana ikki mingtasini o‘ldirdi. 46 O‘sha kuni Benyamin qabilasidan jami yigirma besh ming qurollangan dovyurak jangchi halok bo‘ldi. 47 Ammo olti yuzta sipoh sahrodagi Rimmon qoyasiga qochishga muvaffaq bo‘ldi. Ular to‘rt oy mobaynida u yerda yashab yurdilar. 48 Isroil lashkari Benyamin shaharlariga qaytib, u yerda qolgan–qutgan odamlarni, mollarni, barcha jonzotni qirib tashladi, atrofdagi shaharlarga o‘t qo‘ydi.

21–BOB

Benyamin yigitlari uchun kelinlar

1 Isroil xalqi Mispaxdagi* yig‘inda: “Birontamiz ham Benyamin qabilasiga qiz
uzatmaymiz”, — deb ont ichgan edi. 2 Benyamin qabilasi bilan bo‘lgan urushdan keyin
Isroil xalqi Baytilga* borib, Xudoning huzurida kechgacha o‘tirdi. Ular faryod ko‘tarib:
3 “Ey Isroil xalqining Xudosi — Egamiz, nega bunday ko‘rgilik boshimizga tushdi?! Nega
Isroilning bir qabilasi yo‘q bo‘lib ketdi?!” deya achchiq–achchiq yig‘ladilar.

4 Ertasi kuni odamlar barvaqt turib, u yerda qurbongoh qurdilar. Ular kuydiriladigan
qurbonliklar va tinchlik qurbonliklarini keltirdilar. 5 Keyin bir–birlaridan: “Isroil
qabilalaridan Egamiz huzurida o‘tkazilgan yig‘inga kelmaganlar bormi?” deb so‘radilar.
Chunki ular, Mispaxda — Egamiz huzurida o‘tkazilgan yig‘inda ishtirok etmagan har bir
kishining jazosi o‘limdir, deb qat’iy bir qasam ichgan edilar. 6 Isroil xalqi o‘z jigari
bo‘lgan Benyamin qabilasiga achinib: “Evoh, bugun Isroilning bir qabilasi yo‘q bo‘ldi”,
deya ko‘p o‘kindi. 7 “O‘sha qabiladan faqatgina bir nechta yigit omon qoldi, xolos. Endi
ular uchun qayerdan qiz topamiz? Birontamiz ularga qiz uzatmaymiz, deb Egamizning

nomi bilan qasam ichgan edik–ku!”
8 Isroil xalqi: “Mispaxdagi yig‘inda qatnashmaganlar bormi?” deya surishtira
boshladi. Shunda Giladdagi Yobosh shahrining aholisi yig‘inda qatnashmaganligi ma’lum
bo‘ldi. 9 Chunki yo‘qlama qilinganda o‘sha shahardan hech kim yo‘q edi. 10 Butun jamoa
o‘n ikki ming jangchini tanlab, ularga: “Boringlar, Giladdagi Yobosh shahrining butun
aholisini qirib tashlanglar, xotinu bola–chaqalarini ham ayamanglar!” dedi. 11 “Har bir
erkak va er ko‘rgan har bir ayol o‘ldirilsin.” 12 Jangchilar Yobosh* aholisining orasidan
to‘rt yuzta er ko‘rmagan, yosh bokira qizni topib, ularni Kan’on yurtidagi Shilo‘
qarorgohiga olib keldilar.
13 Keyin butun jamoa Rimmon qoyasidagi Benyamin odamlariga xabar yuborib,
tinchlik e’lon qildi. 14 Benyamin odamlari o‘z uylariga qaytib borishdi. Isroil xalqi
Giladdagi Yobosh aholisining omon qolgan qizlarini ularga turmushga berdi. Ammo
qizlarning soni Benyamin odamlariga qaraganda kamroq edi.
15 Isroil xalqi Benyamin qabilasiga nihoyatda achinar edi, chunki Egamiz ularni
deyarli yo‘q qilib yuborgan edi. 16 Shunda jamoa oqsoqollari shunday dedilar:
— Obbo, endi qolgan Benyamin o‘g‘illariga qayerdan qiz topib beramiz? Ularning
qabilasidan bironta qiz ham tirik qolmadi–ku! 17 Benyamin qabilasi Isroildan batamom
yo‘q bo‘lib ketmasligi uchun omon qolganlari nasl qoldirishlari kerak. 18 Lekin shunisi
ham borki, biz: “Benyamin qabilasiga qiz uzatgan la’nati bo‘lgay!” deb qasam ichib
qo‘ydik, endi ularga qiz uzata olmaymiz.
19 Shunda odamlardan bittasi:
— Ha, aytgancha, Egamizga bag‘ishlab Shilo‘da har yili o‘tkaziladigan bayram haqida
nima deysizlar? — dedi. — Lavo‘n va Baytil shaharlarining o‘rtasida joylashgan bu
shahar, Baytildan Shakamga ketadigan yo‘lning shundoq yonginasida–ku.
20 Oqsoqollar Benyamin qabilasidan bo‘lgan bo‘ydoq yigitlarga shunday uqtirdilar:
— Boringlar, uzumzorlarda yashirinib, 21 poylab turinglar. Shilo‘ qizlari o‘yinga
chiqqanda, uzumzordan chiqib, har biringiz o‘zlaringiz uchun qiz olib qochinglar.
22 Qizlarning otalari yoki aka–ukalari oldimizga shikoyat qilib keladigan bo‘lishsa, biz
ularga shunday deymiz: “Qizlaringizni olib qolishimizga ijozat beringlar. Tushuninglar
axir, biz Giladdagi Yoboshga hujum qilganimizda Benyamin yigitlari uchun yetarlicha
qiz olib kela olmadik. Garchi Benyamin yigitlari qizlaringizni olib qochgan bo‘lsa–da,
sizlar qasamni buzgan hisoblanmaysizlar.”
23 Benyamin odamlari Shilo‘ga borib, uzumzorlarda yashirinib oldilar. Qizlar raqsga
tushganlarida ular o‘zlari uchun bittadan qiz olib qochdilar. So‘ng olib qochgan qizlari
bilan uylariga qaytib ketdilar, shaharlarini tiklab, o‘sha joyda yashadilar. 24 Butun Isroil
jamoasi ham uy–uylariga, qabilalari va oilalariga qaytib bordi.
25 O‘sha davrlarda Isroilda shoh yo‘q edi. Har bir odam bilganini qilar edi.

IZOHLAR

1:1 *Yoshuaning o‘limi* — Yoshua 24:29-30 ga qarang.

1:7 *...dasturxonimdan tushgan ushoqlarni terib yurishar edi* — bu harakat mag‘lubiyat va xorlikning bir belgisi edi.

1:8 *...Quddusga hujum qilib, shaharni qo‘lga kiritdi* — shahar mag‘lub bo‘lgan bo‘lsa ham, hali Isroil xalqi tomonidan egallanmagan edi (shu bobning 21–oyatiga qarang). Shoh Dovud Quddusni bosib olgandan keyingina, Isroil xalqi bu shaharga egalik qildi (2 Shohlar 5:6-10 ga qarang).

1:10 *Xevron shahri* — Quddusdan qariyb 32 kilometr janubi–g‘arbda joylashgan.

1:12 *Xolib* — Yahudo qabilasining oqsoqollaridan biri (Yoshua 14:6-14 va Sahroda 13:7, 31, 14:6, 10, 20-24 ga qarang). Shu bobning 12-15–oyatlarida yozilgan hikoya Yoshua 15:13-19 da qayd etilgan.

1:14 *...qiz O‘tniyolga: “Keling, otamdan...* — ibroniycha matndan. Qadimiy yunoncha va lotincha tarjimalarda *...O‘tniyol qizga: “Kel, otangdan....*

1:16 *palma shahri Yerixo* — ibroniycha matnda *Palma shahri*. Yerixo shahrini shu nom bilan ham atashardi.

1:17 *Xo‘rmax* — ibroniychadagi ma’nosi *vayrona*.

1:18 *G‘azo, Ashqalon, Exron shaharlari* — Filistlarning beshta shahridan uchtasi (Yoshua 13:3 ga qarang).

1:19 *temir jang aravalari* — bu aravalarning ba’zi qismlari temirdan yasalgan edi, xolos.

1:20 *Muso aytganidek...* — Yoshua 15:13-14 ga qarang.

1:20 *Onoq avlodidan kelib chiqqan uchta urug‘ni* — Onoq avlodi Isroil xalqidan avval Kan’onda yashagan, ular gavdasi ulkan, kuchli jangchilari bilan mashhur bo‘lgan xalq (Sahroda 13:33-34, Qonunlar 1:28, 2:10-11, 20-21, 9:1-2 ga qarang).

1:21 *bugunga qadar* — shu kitob yozilgan vaqtga ishora.

1:22 *Baytil shahri* — Quddusdan qariyb 19 kilometr shimolda joylashgan.

1:24 *yashirin kirish joyi* — qadimda devor bilan o‘ralgan shaharlarda faqat shahar aholisi biladigan bir–ikkita kichkina kirish joylari bo‘lgan. Shaharning asosiy darvozalari qulf bo‘lsa ham, odamlar mana shu joylardan shaharga kira olardilar.

1:26 *Xet xalqining yurti* — Xet xalqining bir shohligi bo‘lib, markazi hozirgi Turkiya hududida joylashgan edi. Bu shohlik bir vaqtlar janubdan hozirgi Suriyagacha cho‘zilgan edi.

1:34 *Amor xalqlari* — bu o‘rinda umumiy nom bo‘lib, bu nom ostida o‘sha vaqtlarda Kan’onda istiqomat qilgan Isroil xalqidan boshqa qolgan hamma xalqlar nazarda tutilgan.

1:36 *Chayonlar dovoni* — ibroniycha matnda *Akrabim dovoni*, ma’nosi *chayonlar dovoni*.

2:1 *Gilgal* — Yerixo shahridan sharqda joylashgan. Isroil xalqi Yoshua boshchiligida yurtga kirganlaridan keyin, birinchi marta mana shu joyda qarorgoh qurganlar (Yoshua 4:19-5:12 ga qarang).

2:3 *…sizlarga dushman bo‘lib…* — yoki *…ular sizlarga tuzoq bo‘lib qoladi…*, yoki *…ular sizlarning biqiningizdagi tikanday bo‘ladi…*.

2:5 *Boxim* — ibroniychadagi ma’nosi *yig‘laydiganlar*.

2:9 *Timnat–Serax* — ibroniycha matnda bu nomning boshqa varianti *Timnat–Xares*. Uning Timnat–Serax degan shakli Yoshua 24:30 dan olingan (yana Yoshua 19:50 ga qarang).

2:16 *hakamlar* — o‘sha vaqtda Isroilning yo‘lboshchilari hakamlar deb atalgan. Isroil xalqi dushmanlariga qarshi urush ochganda, hakamlar lashkarboshi sifatida xizmat qilardi. Shuningdek, hakamlar qozi vazifasini, ayrim hollarda diniy vazifalarni ham bajarar edilar.

3:3 *beshta Filist begi* — bu beklar Filistlarning G‘azo, Ashdod, Ashqalon, Gat va Exron degan shaharlarida hukmronlik qilardilar (Yoshua 13:3 ga qarang).

3:3 *Levo–Xomat* — yoki *Xomat dovoni*.

3:7 *Ashera* — Kan’ondagi xalqlar sajda qilgan hosildorlik xudosi bo‘lib, ayol qiyofasida tasavvur qilingan. Uning erkak jufti Baal edi. Asheraning tasvirlari baland ustun shaklida bo‘lib, yog‘ochdan yasalgan edi.

3:8 *Oram–Naxrayim* — ibroniychadagi ma’nosi *Ikki daryoning Orami* demakdir. Bu yer Furot daryosi bo‘yida joylashgan bo‘lib, hozirgi Suriya mamlakatining shimoliy qismini va hozirgi Turkiyaning janubi–sharqiy qismini qamrab olardi.

3:10 *hakam* — 2:16 izohiga qarang.

3:12 *Mo‘ab yurti* — O‘lik dengizning sharqiy qirg‘og‘ida joylashgan edi.

3:13 *palma shahri Yerixo* — ibroniycha matnda *Palma shahri*. Yerixo shahrini shu nom bilan ham atashardi.

3:16 *bir tirsak* — taxminan 45 santimetrga to‘g‘ri keladi.

3:19 *Gilgal* — bu joy Yerixo shahridan qariyb 2,5 kilometr masofada bo‘lgan. Bu voqea yuz berganda shoh Eglon Yerixo shahridagi saroyida bo‘lgan bo‘lishi mumkin.

3:19 *haykallar* — yoki *butlar* yoxud *yodgorliklar* (shu bobning 26–oyatida ham bor).

3:22 *…xanjar tig‘i shohning qornini yorib butidan chiqdi* — yoki *…u xonadan chiqib ketdi*.

3:31 *govron* — yo‘g‘on novdadan qilingan, uchi o‘tkirlangan podachilar tayog‘i. Podachilar govron bilan mollarni niqtab, yurishga undaydi.

4:3 *temir jang aravasi* — 1:19 izohiga qarang.

4:4 *hakam* — 2:16 izohiga qarang.

4:6 *Tovur tog‘i* — Jalilada, Jalila ko‘lining janubiy qirg‘og‘idan qariyb 19 kilometr g‘arbda joylashgan.

5:4 *Seir* — Edom yurtining yana bir nomi.

5:10 *Eshiting…* — yoki *E’lon qiling…* yoxud *Shu haqda kuylang…*.

5:11 *cho‘ponlar* — yoki *qo‘shiqchilar*.

5:14 *Omoleklarni yenggan Efrayim* — Efrayim qabilasi Omolek xalqini yengib, ularning qirli yurtini egallab olgan edi (12:15 ga qarang).

5:20 *Jang qildi yulduzlar samoda turib…* — samo kuchlari Isroil tarafida turib jang qilganligi she'riy uslubda ko'rsatilgan (4:7, 14-16 ga qarang).

6:1 *Midiyon xalqi* — Kan'ondan janubi–sharqdagi cho'l joylarda yashagan ko'chmanchi xalq.

6:5 *chigirtka* — ba'zan to'da–to'da bo'lib kelib, dalalardagi hosilga katta zarar yetkazadigan hasharot.

6:10 *Amor xalqlari* — 1:34 izohiga qarang.

6:11 *uzum siqish chuquri* — qadimgi paytlarda odamlar uzumni qoyatoshga o'yilgan chuqurga yoki tuproqdan qazilgan, tubiga va atrofiga zich qilib tosh terilgan chuqurga solib, sharbatini siqib olish uchun oyoqlari bilan ezardilar. Sharbat o'sha chuqurdan yana boshqa bir chuqurga oqib tushardi.

6:15 *to'ram* — yoki *Rabbim*. Bu o'rindagi ibroniycha so'z odatda Xudoga nisbatan ishlatiladi, lekin ba'zi bir holatlarda hurmat ko'rsatish maqsadida odamlarga nisbatan ham qo'llaniladi. Gido'n hali Egamiz bilan gaplashayotganini tushunmagan edi (shu bobning 22-23–oyatlariga qarang).

6:19 *bir tog'ora* — ibroniycha matnda *bir efa*, taxminan 22 kiloga to'g'ri keladi.

6:22 *Voy…yuzini ko'rdim* — Egamizni ko'rgani uchun Gido'n, endi o'laman, deb juda qo'rqib ketgan edi. Isroil xalqi, Xudoni ko'rgan odam o'ladi, deb ishonardi (13:22, Ibtido 32:30 va Chiqish 33:20 ga qarang).

6:24 *bugunga qadar* — shu kitob yozilgan vaqtga ishora.

6:25 *Otangning yetti yashar ikkinchi buqasi* — yoki *Otangning buqasi bilan birga yana bir yetti yasharli buqa*.

6:25 *Ashera* — 3:7 izohiga qarang.

6:26 *o'sha buqa* — yoki *ikkinchi buqa* (shu bobning 28–oyatida ham bor).

7:1 *Mo're tepaligi* — Xaro'd bulog'idan qariyb 8 kilometr shimolda joylashgan.

7:3 *Gilad tog'i* — odatda "Gilad" deb Iordan daryosining sharqida joylashgan o'lkaga aytiladi, lekin bu oyatda Yizril vodiysi yaqinidagi, Iordan daryosining g'arbida joylashgan yerlar nazarda tutilgan. Ehtimol, bu o'rinda "Gilad" Gilbova tog'ining yana bir nomi sifatida ishlatilgan.

7:12 *chigirtka* — 6:5 izohiga qarang.

7:22 *…Bayt–Shittax…Ovil–Maxla shahri…* — bu shaharlar Iordan daryosining sharq tomonida joylashgan.

7:25 *Oriv va Zayov* — ibroniychada Oriv ismining ma'nosi — *quzg'un*, Zayov ismining ma'nosi — *bo'ri*. Midiyon xalqi, ovchilar kabi, Isroil xalqini quvib, ularni talon–taroj qilardi.

7:25 *uzum siqish chuquri* — 6:11 izohiga qarang.

8:4 *…narigi qirg'oqqa o'tib oldi* — ya'ni daryoning sharq tomoniga.

8:8 *Paniyol shahri* — ibroniycha matnda bu nomning boshqa varianti *Panuval*. Paniyol shahri Giladda — Iordan daryosining sharq tomonida joylashgan edi (shu bobning 9, 17–oyatlarida ham bor).

8:9 *minora* — qadimda shaharlar devor bilan o‘ralgan bo‘lib, ma’lum joylarida minoralar devorga tutashtirib qurilgan. Minoralardan mudofaa vositasi sifatida foydalanilgan.

8:24 *Midiyonlar ham, Ismoil avlodi singari…* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *Ismoil avlodidan bo‘lganlari uchun…*. Ismoil va Midiyon xalqlari Ibrohimning ikkita o‘g‘lidan kelib chiqqanlar (Ibtido 25:1-2, 12 ga qarang). Bu xalqlar yaqin qarindosh bo‘lganlari uchun, ularning ikkalovini ham ba’zan Midiyon xalqi, ba’zan esa Ismoil xalqi deb atashardi (yana Ibtido 37:28 ga va o‘sha oyatning birinchi izohiga qarang).

8:26 *bir puddan ortiq* — ibroniycha matnda *bir ming yetti yuz shaqal*, taxminan 19,5 kiloga to‘g‘ri keladi.

8:27 *haykal* — ibroniycha matnda *efod*, oliy ruhoniylarning sajda marosimlarida kiyadigan ustki kiyimi (Chiqish 28:6-30, Levilar 8:7 ga qarang). Biroq bu o‘rinda oliy ruhoniylarning kiyimi emas, balki sajda qilish va fol ochishda ishlatiladigan buyum nazarda tutilgan. Bu buyum efod shaklida ishlangan oltin haykal bo‘lishi mumkin.

8:29 *Gido‘n* — ibroniycha matnda *Yerubbaal*, Gido‘nning yana bir ismi (6:32, 7:1 ga qarang).

8:31 *cho‘ri* — ibroniycha matnda bu so‘zning ma’nosi quyidagicha: cho‘ri bo‘lgan ayollar qonuniy xotin bo‘lmasalar–da, xo‘jayinlari ular bilan jinsiy aloqada bo‘lishgan. Qadimgi paytlarda bu ayollarning jiddiy qonuniy huquqlari bo‘lib, xo‘jayinlari ularning erlari sifatida bo‘lgan.

8:33 *Baal–Berit* — ibroniychadagi ma’nosi *ahd Baali*.

9:1 *Gido‘n* — ibroniycha matnning shu joyida va mana shu bobning qolgan qismida *Yerubbaal* deb ishlatilgan, Gido‘nning yana bir ismi (6:32, 7:1 ga qarang).

9:4 *Baal–Berit* — 8:33 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

9:4 *yetmish bo‘lak kumush* — taxminan 770 grammga to‘g‘ri keladi.

9:6 *Shakam* — Quddusdan qariyb 50 kilometr shimolda, Isroil tepaliklarida joylashgan shahar.

9:15 *Lubnondagi sadrlar* — Lubnon tog‘larida o‘sadigan bu sadr daraxtlari dunyoning o‘sha hududidagi eng katta daraxt turlaridan edi.

9:31 *U bildirmay Abumalekning oldiga chopar jo‘natib…* — yoki *U Armaxdagi Abumalekning oldiga chopar jo‘natib…*.

9:37 *folbinlarning daraxti* — ibroniycha matnda *Elon–Mo‘nanim*, ma’nosi *folbinlarning eman daraxti*.

9:41 *Armax* — Shakamdan qariyb 8 kilometr masofada joylashgan shahar.

9:45 *…ustidan tuz sochib tashladi* — bu harakat Abumalekning bu shaharda endi hech narsa o‘smaydi, hech kim yashamaydi, deb la’natlaganining ramzi bo‘lishi mumkin (Qonunlar 29:23, Zabur 106:34, Yeremiyo 17:6 ga qarang).

9:46 *Baal–Berit* — ibroniycha matnda *El–Berit*. Ma’nosi *ahd xudosi*, Baal–Beritning yana bir nomi (8:33 ga va shu bobning 4–oyatiga qarang).

9:48 *Zalmon tog‘i* — Shakam shahri yaqinida joylashgan Ebal tog‘ining yoki Garizim tog‘ining yana bir nomi.

10:2 *hakam* — 2:16 izohiga qarang.

10:4 *...o‘ttizta eshakni minishar...o‘ttizta shaharga egalik qilishardi* — bu ularning boyligi va baland lavozimga ega ekanliklarining belgilaridir.

10:4 *bugunga qadar* — shu kitob yozilgan vaqtga ishora.

10:4 *Yovir shaharlari* — ibroniycha matnda *Xavot–Yovir*, ma’nosi *Yovir shaharlari*.

10:12 *Moyun* — ibroniycha matndan. Qadimiy yunoncha tarjimaning ba’zi qo‘lyozmalarida *Midiyon*. Moyun Mavun xalqining yana bir nomi bo‘lishi mumkin. Mavun xalqi Midiyon xalqi yashaydigan joyda yashardi. Ular Midiyon xalqidan kelib chiqqan bir guruh bo‘lishi ham mumkin.

10:17 *Mispax* — 10-12–boblarda Mispax so‘zi Giladdagi bir shaharga nisbatan ishlatilgan (11:29 ga qarang), Gilad o‘lkasi Iordan daryosining sharqida, O‘lik dengizning shimolida joylashgan. Keyinroq 20-21–boblarda Mispax deb boshqa shahar haqida aytilgan.

11:11 *Mispax* — 10:17 izohiga qarang.

11:16 *Qizil dengiz* — ibroniycha matnda *Yom–Suf*, ma’nosi *Qamish dengizi*. Bu oyatdagi mana shu nom hozirgi Aqaba qo‘ltig‘iga (ya’ni Qizil dengizning shimoli–sharqidagi qo‘ltig‘iga) ishora qiladi.

11:16 *Kadesh* — Kadesh–Barna nomi bilan ham ma’lum bo‘lib, hozirgi Aqaba qo‘ltig‘ining shimoliy qirg‘og‘idan qariyb 145 kilometr shimoli–g‘arbda joylashgan voha (Sahroda 20:1, 14-21 ga qarang).

11:24 *...xudoying Xamo‘sh bergan narsalarga egalik qil!* — qadimda odamlarning tasavvuriga ko‘ra har bir xalqning o‘z xudosi bo‘lib, bu xudolar o‘sha xalqlarning hududlariga egalik qilishardi. Mo‘ab xalqining xudosi Xamo‘sh, Ommon xalqining xudosi Mo‘lax hisoblanardi (3 Shohlar 11:7 ga qarang). Ommon xalqi Isroil xalqidan tortib olmoqchi bo‘lgan bu yerlar oldin Mo‘ab xalqiga, so‘ng Amor xalqiga qarashli bo‘lgan (Sahroda 21:26 ga qarang). Shu bois, bu oyatda Ommon shohiga “xudoying Xamo‘sh bergan narsalarga egalik qil” deb aytilgan.

11:25 *Nima, sening...Boloqdan ortiq joying bormidi?!* — Boloq Mo‘abning oldingi shohi edi. U Balom degan odamni, Isroil xalqini la’natlagin, deb yollagan edi, ammo o‘sha odam gapirganda uning og‘zidan faqat duo chiqdi, chunki u orqali Xudo gapirgan edi (Sahroda 22:1-24:25 ga qarang).

12:7 *hakam* — 2:16 izohiga qarang.

12:8 *Baytlahm* — bu o‘rinda Quddusdan janubda joylashgan shahar emas, Zabulun qabilasining hududida joylashgan kichkina bir shaharcha haqida gap ketayotgan bo‘lishi mumkin.

12:14 *...yetmishta eshakni minib yurishardi* — bu badavlat oila ekanini bildirar edi.

13:2 *Dan qabilasi* — bu paytda Dan qabilasi Filistlar yashaydigan dengiz sohili bo‘yidagi tekisliklar yonida, Isroil yurtining janubi–g‘arbida o‘rnashgan edi. Keyinroq Dan qabilasi shimolga ko‘chdi (18–bobga qarang).

13:5 *…Xudoga nazr qilingay…* — ibroniycha matnda alohida bir so‘z ishlatilgan bo‘lib, bu so‘z Xudoga xizmat qilish uchun maxsus va’da bergan odamni bildiradi. Ba’zi insonlar maxsus va’da berib, o‘zlarini birmuncha vaqt Xudoning xizmatiga bag‘ishlar edilar. Ba’zi birovlar esa tug‘ilgan paytlaridanoq shu va’da orqali Xudoga bag‘ishlanganlar. Tavrot qonuniga ko‘ra, o‘zini Xudoga butunlay bag‘ishlab, nazr qilgan odam sharob yoki may ichmasligi, sochini qirqmasligi, murdaga tegmasligi kerak edi (Sahroda 6:1-8, 21 ga qarang). Ibroniycha matnda shu ma’nodagi so‘z mazkur bobning 7–oyatida ham bor.

13:22 *Biz o‘lamiz, chunki biz Xudoni ko‘rdik!* — 6:22 izohiga qarang.

13:25 *Zorox bilan Eshtoyo‘l shaharlari* — Isroilning janubi–g‘arbida, Filistlar yashaydigan dengiz sohili bo‘yidagi tekisliklarda joylashgan.

13:25 *Dan qabilasining qarorgohi* — ibroniycha matnda *Maxonex–Dan*, ma’nosi *Dan qarorgohi*.

14:9 *…asalni sherning murdasidan olganini aytmadi* — Shimsho‘n Xudoga bag‘ishlangan bo‘lgani uchun u o‘lik hayvonning jasadiga tegishi mumkin emas edi (13:5 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang). Tavrot qonuniga ko‘ra, jasad va jasadga tekkan mana shu asal ham harom hisoblanardi, shuning uchun ularga tekkan odam harom bo‘lib qolardi (Levilar 11:27-40 ga qarang).

14:15 *yettinchi* — ibroniycha matndan. Qadimiy yunoncha va suryoniycha tarjimalarda *to‘rtinchi*.

14:19 *Ashqalon shahri* — Filistlarning beshta shahridan bittasi (1:18-19 ga qarang).

15:6 *otasining xonadoni* — ko‘plab ibroniy qo‘lyozmalaridan, qadimiy yunoncha va suryoniycha tarjimalardan (yana 14:15 ga qarang). Ibroniycha matnda *otasi*.

15:8 *Etom qoyasi* — bu qoya Yahudo qabilasining hududida, Baytlahm shahridan bir necha kilometr janubi–g‘arbda joylashgan.

15:9 *Lexi* — ibroniychadagi ma’nosi *jag‘ suyagi*.

15:16 *uyum–uyum* — ibroniychada *uyum* va *eshak* so‘zlari o‘zaro ohangdosh.

15:17 *Ramat–Lexi* — ibroniychadagi ma’nosi *jag‘ suyagi tepaligi*.

15:19 *En–Xaqqor* — ibroniychadagi ma’nosi *faryod qilganning bulog‘i*.

15:19 *bugunga qadar* — shu kitob yozilgan vaqtga ishora.

15:20 *hakam* — 2:16 izohiga qarang.

16:2 *…shahar darvozasida…* — bu ibora ham shahar darvozasiga, ham darvozaning yonida shahar devorlari orasiga qurilgan xonalarga nisbatan ishlatilgan. Bu xonalardan qo‘riqchilar va boshqa nazoratchilar xizmat paytida foydalanganlar.

16:3 *Xevron* — G‘azodan qariyb 65 kilometr sharqda joylashgan shahar.

16:5 *Filist beklari* — 3:3 ning birinchi izohiga qarang.

16:5 *1100 bo‘lakdan kumush* — taxminan 13 kiloga to‘g‘ri keladi.

16:7 *yangi, qurib ulgurmagan kamon ipi* — kamon ipi ko‘pincha hayvon ichagidan eshilib qilingan. Bu iplar ichaklar hali ho‘lligida qilingan, ular qurigandan keyin juda ham pishiq bo‘lib qolgan.

16:13-14 *…moki yordamida yaxshilab mahkamlab qo‘ysang…*[14] *…uning yetti tutam*

sochini dastgohdagi matoga qo‘shib to‘qidi–da… — qadimiy yunoncha tarjimadan. Bu so‘zlar kotibning xatosi tufayli ibroniycha matnda tushib qolgan.

16:17 *…onamning qornidayoq Xudoga nazr qilinganman* — 13:2-5 oyatlarga va 13:5 izohiga qarang.

16:31 *Zorox bilan Eshtoyo‘l shaharlari* — 13:25 ning birinchi izohiga qarang.

16:31 *hakam* — 2:16 izohiga qarang.

17:2 *1100 bo‘lak kumush* — taxminan 13 kiloga to‘g‘ri keladi.

17:4 *kumush bo‘laklarining 200 tasi* — taxminan 2,3 kiloga to‘g‘ri keladi.

17:4 *…but yasab, uni kumush bilan qopladi* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *…kumushdan o‘yma but va quyma but yasadi*. Ibroniycha matnda keyinroq faqat bitta but haqida so‘z yuritilgan. Shuning uchun bittagina but yasalganining ehtimoli ko‘proq. Bu but o‘yib yasalgandan so‘ng kumush bilan qoplangan edi.

17:5 *ruhoniylar kiyadigan maxsus libos* — ibroniycha matnda *efod*. Hoynahoy bu oyatda *efod* so‘zi sajdagohda xizmat qiladigan ruhoniy kiyadigan kiyimga ishora qiladi. Musoning akasi oliy ruhoniy Horun kiygan efodga o‘xshatib tikilgan bo‘lishi mumkin (Chiqish 28:6-30, Levilar 8:7 ga qarang). Yoki odamlar sajda qilgan yoki fol ochish uchun ishlatgan narsa haqida aytilgan bo‘lishi ham mumkin (yana 8:27 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang).

17:5 *xonaki sanamlar* — ibroniycha matnda *terafim*. Odamlar bu sanamlardan fol ochishda foydalangan bo‘lsalar kerak.

17:7 *Baytlahm shahri* — Quddusdan qariyb 8 kilometr janubda joylashgan.

17:7 *levi* — Xudo tomonidan Muqaddas chodirda xizmat qilish uchun tanlangan, Levi qabilasiga mansub odam (Sahroda 3:5-10 ga qarang).

17:10 *o‘n bo‘lakdan kumush* — taxminan 110 grammga to‘g‘ri keladi.

18:2 *Zorox va Eshtoyo‘l shaharlari* — 13:25 ning birinchi izohiga qarang.

18:3 *levi* — 17:7 ning ikkinchi izohiga qarang.

18:7 *…Layish shahri…Sidon…* — Layish shahri Isroilning eng shimoliy qismida joylashgan shahar edi. Sidon esa Finikiyaga qarashli shahar bo‘lib, Isroildan shimolda, O‘rta yer dengizi bo‘yida joylashgan edi.

18:12 *bugunga qadar* — shu kitob yozilgan vaqtga ishora.

18:12 *Dan qarorgohi* — 13:25 ning ikkinchi izohiga qarang.

18:14 *ruhoniylar libosi* — ibroniycha matnda *efod* (shu bobning 17, 18, 20–oyatlarida ham bor). 17:5 ga va o‘sha oyatning birinchi izohiga qarang.

18:14 *xonaki sanamlar* — ibroniycha matnda *terafim* (shu bobning 17, 18, 20–oyatlarida ham bor). Odamlar bu sanamlardan fol ochishda foydalangan bo‘lsalar kerak.

18:29 *Yoqub* — ibroniycha matnda *Isroil*, Yoqubning yana bir ismi (Ibtido 32:27-28 ga qarang).

18:30 *Muso* — ibroniycha matnda bu so‘z *Manashe* deya o‘qilsin deb, maxsus belgilangan. Qadimgi ibroniy kotiblari Musoning nomiga dog‘ tushirmaslik niyatida shunday qilgan bo‘lishlari mumkin, chunki bu o‘rinda aniq Musoning avlodidan bo‘lgan

Yo‘natanning butparastligi haqida gap ketyapti.

18:30 *Isroil xalqi surgun bo‘lguniga qadar…* — miloddan oldingi 722 yilda Isroil, ya’ni shimoliy shohlik Ossuriyaga surgun qilingan.

18:31 *Shilo‘ shahri* — Quddusdan qariyb 32 kilometr shimolda joylashgan bo‘lib, Isroil xalqi sajda qiladigan asosiy joy bo‘lib qolgan edi. Xudoga sajda qilish uchun boriladigan asosiy joy Shilo‘dagi Muqaddas chodir edi. Bu paytda hali Quddusdagi Ma’bad qurilmagan edi.

19:1 *cho‘ri* — ibroniycha matnda bu so‘zning ma’nosi quyidagicha: cho‘ri bo‘lgan ayollar qonuniy xotin bo‘lmasalar–da, xo‘jayinlari ular bilan jinsiy aloqada bo‘lishgan. Qadimgi paytlarda bu ayollarning jiddiy qonuniy huquqlari bo‘lib, xo‘jayinlari ularning erlari sifatida bo‘lgan. Bu ibroniycha so‘z bu matnning qolgan qismida (19:1-20:6) *xotin* deb tarjima qilingan.

19:13 *…Givo…Rama…* — Quddusdan Givogacha bo‘lgan masofa taxminan 5 kilometr, u yerdan Ramagacha bo‘lgan masofa ham taxminan 5 kilometr edi.

19:21 *…oyoqlarini yuvib…* — odamlar u davrda usti ochiq oyoq kiyim kiyib yurishgan. Uzoq yo‘l yurib yoki dalada ishlab kelganlaridan keyin oyoqlarini yuvishgan. Bu odat tusiga kirgan edi.

19:28 *Lekin javob bo‘lmadi* — ibroniycha matndan. Qadimiy yunoncha tarjimada *Lekin javob bo‘lmadi, u o‘lik edi*.

20:1 *Mispax* — Quddusdan qariyb 8 kilometr shimolda joylashgan shahar. 20-21–boblarda tilga olingan bu Mispax shahri 10-12–boblardagi Mispax shahridan boshqa.

20:4 *xotinim* — 19:1 izohiga qarang.

20:9 *…Xudodan so‘rab, qur’a tashlaymiz* — qur’a tashlashda yog‘och bo‘laklari yoki toshlar ishlatilgan bo‘lib, shu orqali Xudoning xohish–irodasi aniqlangan. Ba’zan odamlar qur’a tashlab, Xudodan biror ishni qanday yoki qachon qilish kerakligini so‘rashgan.

20:10 *Givo* — ibroniycha matnda bu nomning boshqa varianti *Gebo*.

20:18 *…Baytil shahridagi sajdagohga…* — yoki *…Xudoning uyiga…*, chunki ibroniycha matndagi *baytil* so‘zining ma’nosi *Xudoning uyi* demakdir. Bu ibroniycha so‘z odatda Quddusdan qariyb 19 kilometr shimolda joylashgan Baytil shahriga nisbatan ishlatiladi, lekin bu o‘rinda Shilo‘dagi sajdagoh nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin (18:31 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang).

20:26 *Baytil* — shu bobning 18–oyati izohiga qarang.

20:33 *…Gebo tekisligidagi…* — ibroniycha matndan. Qadimiy yunoncha va lotincha tarjimalarda *Givodan g‘arbdagi*. Gebo shahri Benyamin qabilasiga qarashli hududda, ya’ni Givodan qariyb 4 kilometr shimoli–sharqda joylashgan.

21:1 *Mispax* — 20:1 izohiga qarang.

21:2 *…Baytilga…* — yoki *…Xudoning uyiga…*, chunki ibroniycha matndagi *baytil* so‘zining ma’nosi *Xudoning uyi* demakdir. Bu ibroniycha so‘z odatda Quddusdan qariyb 19 kilometr shimolda joylashgan Baytil shahriga nisbatan ishlatiladi, lekin bu o‘rinda Shilo‘dagi sajdagoh nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin (18:31 ga va o‘sha oyatning

izohiga qarang).

21:12 *Yobosh* — Giladdagi shahar. Gilad — Iordan daryosining sharq tomonidagi o‘lka.

RUT

KITOBI

Kirish

Rut kitobida hakamlar davrida yashagan yahudiy bir oilasining hayoti to‘g‘risida hikoya qilinadi. Bu oila keyinchalik Isroilda muhim o‘rin tutdi. Chunki Rutning evaralaridan biri Dovud buyuk shoh bo‘ldi.

Kitobda Rutdan tashqari yana bir asosiy qahramon uning qaynanasi Naimadir. Naima eri va ikki o‘g‘li bilan Baytlahm shahrida yashardi. Lekin Isroil yurtida ocharchilik boshlangani uchun bu oila Mo‘ab yurtiga yo‘l oladi. Naimaning eri u yerda vafot etadi, o‘g‘illari esa Mo‘ablik qizlarga uylanadilar. O‘sha qizlardan biri Rut edi.

Naimaning ikkala o‘g‘li ham Mo‘abda olamdan o‘tgach, Naima Baytlahmga qaytishga qaror qiladi. Naima ikkala kelinidan Mo‘abda qolishlarini va o‘zlariga boshqa qayliq topishlarini o‘tinib so‘raydi. Lekin Rut Naima bilan birga Baytlahmga ketishga qaror qiladi. Kitob davomida Rut qanday qilib Naimaning Bo‘az ismli boy qarindoshiga turmushga chiqqani to‘g‘risida hikoya qilinadi.

Tavrot qonuniga muvofiq*, Mo‘abliklarning Isroil xalqi qatoriga qo‘shilishi man qilingan edi. Biroq Rut Xudoga va qaynanasiga bo‘lgan mehri va samimiy sadoqati tufayli, istisno tariqasida Isroil xalqi qatoriga qo‘shiladi.

Butun Isroil xalqi ruhiy inqirozga uchragan, Xudoga bo‘lgan e’tiqodidan voz kechgan og‘ir bir davrda Rut va Bo‘az chin sadoqat timsoli bo‘lib gavdalanadi.

1–BOB

Elimalek oilasi bilan Baytlahmdan Mo‘abga ko‘chadi

1 Isroilda hakamlar* hukmronligi davrida bir muddat ocharchilik bo‘lgan edi. Bir
odam xotini va ikki o‘g‘li bilan birga birmuncha vaqt yashash niyatida Mo‘ab yurtiga*
jo‘nadi. U Yahudoning Baytlahm shahridan* edi. 2 U odamning nomi Elimalek, xotinining
oti Naima, o‘g‘illarining ismlari esa Maxlo‘n va Xilyon edi. Bu oila Yahudoning Baytlahm
shahridan — Efratlik* edi. Ular Mo‘ab yurtiga borib, o‘sha yerda yashab qoldi.
3 Ular o‘sha yerda yashayotganlarida, Elimalekning ajali yetdi. Naima ikki o‘g‘li bilan
qoldi. 4 Uning o‘g‘illari Mo‘ablik qizlarga uylandilar. Qizlardan birining ismi O‘rpa,
ikkinchisiniki Rut* edi. Ular o‘sha yerda o‘n yilcha yashashgandan keyin 5 Maxlo‘n va
Xilyon ikkalasi ham vafot etishdi. Naima ham eridan, ham farzandlaridan ayrilib, yolg‘iz
qoldi.

Naima va Rut Baytlahmga qaytishadi

6-7 “Egamiz O‘z xalqiga e’tibor berib, ularga non berdi” degan xabarni eshitgach,
Naima o‘z yurtiga qaytishga qaror qildi. Naima yashab kelgan Mo‘ab yurtini tashlab,
kelinlari bilan birga yo‘lga tushdi va Yahudoga qarab yurishdi. 8 Yo‘lda davom
etisharkan, Naima ikkala keliniga dedi:

— Boringlar, ikkovingiz ham onalaringizning uylariga qaytinglar. Menga va
marhumlarga bo‘lgan izzat–hurmatingiz uchun Egam sizlarga ham marhamat qilsin.

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

9 Ikkovlaringizga ham yaxshi joylardan ato qilsin, turmush qurib, oʻz erlaringiz bilan
baxtli boʻlinglar!
Shunday deb Naima kelinlarini oʻpdi, ikkalasi esa yigʻlab faryod koʻtarishdi:
10 — Yoʻq, biz siz bilan ketamiz, sizning xalqingiz orasida yashaymiz, — deyishdi.
11 Naima esa yana kelinlariga:
— Qaytinglar, jon qizlarim! — dedi. — Men bilan ketganingizdan nima foyda?!
Qornimda yana oʻgʻillarim bormidiki, sizlarga umr yoʻldoshi boʻlsa?!* 12 Boʻldi endi,
qizlarim, qaytinglar! Men endi keksaydim, erga tegishga ojizman. Bordi–yu, men, hali
umid qilsam boʻladi, deb shu kecha erim bilan qovushsam–u, oʻgʻillar tugʻsam, 13 ular
ulgʻayguncha sizlar kutib turarmidingiz?! Orqaga choʻzib, turmushga chiqmay
yurarmidingizlar?! Yoʻq, qizlarim. Sizlarni oʻylab juda qaygʻuryapman. Axir, Egam
shuncha koʻrgilikni boshimga soldi–ku.
14 Ular yana yigʻlab, dod–voy koʻtarishdi. Nihoyat, Oʻrpa qaynanasi bilan oʻpishib
xayrlashib, orqaga qaytib ketdi. Rut esa Naimaga yopishib oldi.
15 Naima Rutga:
— Mana, ovsining oʻz xalqi orasiga, oʻz xudolariga* sigʻinadigan yurtga qaytib ketdi.
Sen ham uning orqasidan borgin, — dedi.
16 — Sizdan ajralishga, qaytib ketishga meni majbur qilmang, — dedi Rut. — Siz
qayerga borsangiz, men ham oʻsha yerga boraman, siz qayerda boʻlsangiz, men ham
oʻsha yerda boʻlaman. Sizning xalqingizni oʻzimning xalqim, sizning Xudoyingizni
oʻzimning Xudoyim deyman. 17 Siz qayerda olamdan oʻtsangiz, men ham oʻsha yerda jon
berib, dafn qilinaman. Egam meni ne koʻyga solsa solsin, hatto undan battarrogʻini
qilsin. Meni sizdan faqat oʻlim ajrata oladi*.
18 Naima amin boʻldiki, kelini u bilan ketishga qat’iy ahd qilibdi. Shundan soʻng uni
koʻndirishga qayta urinmadi. 19 Ikkovlari yoʻl yurib Baytlahmga yetib kelishdi.
Baytlahmga yetib kelganlarida, ularni koʻrib butun shahar gʻimirlab qoldi. Ayollar bir–
biriga: “Iyi, nahotki bu oʻsha Naima boʻlsa?!” deb hayron qolishdi. 20 Naima ularga dedi:
— Endi meni Naima* emas, Musibat* denglar. Chunki Qodir Xudo boshimga cheksiz
qaygʻu–kulfat soldi. 21 Men bu yerdan toʻkis boʻlib chiqib ketgan edim, Egam esa qup–
quruq qaytardi. Endi nega meni Naima deysizlar?! Axir, Egam — Qodir Xudo meni azob–
uqubatlarga giriftor qilib, baxtsiz qildi–ku!
22 Shunday qilib, Naima Moʻablik kelini Rut bilan birga Moʻab yurtidan qaytib keldi.
Ular Baytlahmga kelgan paytda arpa oʻrimi boshlangan edi*.

2–BOB

Rutning Boʻaz bilan uchrashuvi

1 Naimaning Boʻaz degan qarindoshi boʻlib, anchagina obroʻli, badavlat odam edi. U
Naimaning marhum eri Elimalek urugʻidan edi. 2 Bir kuni Moʻablik Rut Naimaga:
— Men dalaga bormoqchi edim. Kim iltifot koʻrsatsa, oʻsha daladan boshoq terib
kelardim*, — dedi.
— Mayli, boraver, qizim, — dedi Naima.
3 Rut ketdi. Dalaga yetib kelib, oʻroqchilarning orqasidan toʻkilgan boshoqlarni tera
boshladi. Qarangki, bu dala Elimalekning qarindoshi Boʻazniki ekan.
4 Bir payt Baytlahmdan Boʻaz kelib qoldi. U oʻroqchilarga:

— Hormanglar, Xudo sizlarga yor bo‘lsin! — dedi. Ular ham:

— Bor bo‘ling, Xudo umringizga baraka bersin! — deb javob qaytarishdi. 5 Bo‘az o‘roqchilar nazoratchisiga Rutni ko‘rsatib:

— Bu juvon kim? — deb so‘radi. 6 O‘roqchilar nazoratchisi:

— Bu o‘sha Mo‘ablik musofir, — dedi, — Naima bilan birga Mo‘ab yurtidan kelgan. 7 U: “Men o‘roqchilar orqasidan yurib, to‘kilgan boshoqlarni terib olsam”, deb so‘ragan edi. Tong saharda kelib shu choqqacha tinmay dalada ishladi. Hozirgina chaylada bir oz dam olgani o‘tirdi.

8 Bo‘az Rutga:

— Menga qara, qizim, — dedi, — boshoq terish uchun boshqa dalaga bormay qo‘ya qol. Shu yerda mening cho‘rilarim bilan birga yuraver. 9 Sen faqat xizmatkorlarim bug‘doy o‘rayotgan dalada bo‘l, ularning orqasidan yuraver. Xizmatkorlarimga tayinlab qo‘yaman, senga indashmaydi. Chanqasang, anavi idishlarda suv bor. Quduqdan xizmatkorlarim tortib olgan, ichaver!

10 Rut yer o‘pguday bo‘lib ta’zim qildi–da, Bo‘azga shunday dedi:

— Nechun nazaringizga tushib, shunchalik mehringizga sazovor bo‘ldim? Men axir, kelgindi bo‘lsam, siz menga shu qadar e’tibor beryapsiz.

11 Bo‘az shunday javob berdi:

— Ering o‘lgandan keyin qaynanangga qanday munosabatda bo‘lganingni menga aytib berishdi. Sen ota–onangni, yurtingni tashlab, ilgari o‘zingga begona bo‘lgan xalq orasida yashashga kelding. 12 Yaxshiliklaring uchun Egamdan qaytsin. Sen panoh istab kelgan Isroil xalqining Xudosi — Egamdan senga to‘liq mukofot bo‘lsin.

13 — Sizning mehringizga sazovor bo‘layin, to‘ram! — dedi Rut. — Siz menday cho‘ringizning dilidagi armonlarini gapirib, tasalli berdingiz. Lekin men sizning cho‘rilaringizdan birontasi emasman–ku.

14 Tushlik payti bo‘lganda Bo‘az Rutga:

— Bu yoqqa kel, nondan ol, musallasga botirib yegin, — dedi.

Rut xizmatkorlar yonidan joy oldi. Bo‘az unga qovurilgan donlardan uzatdi. Rut to‘ydi va ozroq orttirib ham qoldirdi.

15 So‘ngra Rut yana boshoq terib olay deb, o‘rnidan turib nariga ketdi. Bo‘az xizmatkorlariga shunday buyruq berdi:

— U bog‘lamlar orasidan ham terib olaversin, zinhor xafa qila ko‘rmanglar. 16 Hatto bog‘lamdan atayin tashlab qoldirib ketinglar. U terib olsin, uni koyimanglar.

17 Shunday qilib, Rut qosh qorayguncha dalada boshoq terdi, terganlarini yanchdi. U yanchgan arpa bir tog‘oradan ko‘proq* chiqdi. 18 Donni ko‘tarib, shaharga jo‘nadi. U terib kelgan donni qaynanasiga ko‘rsatdi. Rut o‘zi to‘ygandan so‘ng orttirib qoldirgan qovurilgan donlarni qaynanasiga berdi. 19 Qaynanasi Rutdan so‘radi:

— Qayda ishlading? Kimning dalasidan boshoq terding bugun? Senga yordam ko‘rsatganni Xudo yorlaqasin!

Rut kimnikida ishlaganini qaynanasiga aytdi:

— Bugun men ishlagan dalaning egasi Bo‘az degan odam ekan, — dedi. 20 Naima keliniga:

— Uni Xudo yorlaqasin! — dedi hayajonlanib. — Tiriklarga, ham marhumlarga* sodiq qolib, marhamatini darig‘ tutmabdi.

So‘ng:

— U kishi bizning yaqin qarindoshlarimizdan, oilamizni oʻz panohiga olishga burchli odamlardan*, — deb qoʻshib qoʻydi.

21 Moʻablik Rut ham qoʻshimcha qildi:

— U menga hatto, dalamda oʻrim–yigʻim tugamaguncha, mening xizmatkorlarim bilan birga yuraver, deb aytdi.

22 Naima keliniga:

— Yaxshi, qizim, sen uning choʻri qizlari bilan yuraver. Begona dalaga borsang, senga ozor berishlari mumkin, — dedi.

23 Shu tariqa Rut arpa va bugʻdoy oʻrimi tugagunga qadar*, Boʻazning choʻri qizlari yonida boshoq terib yurar, qaynanasi bilan birga yashardi.

3–BOB

Rut va Boʻaz xirmonda

1 Oradan maʼlum vaqt oʻtgach, Rutga qaynanasi Naima shunday dedi:

— Qizim, birortasi bilan roʻzgʻor qilsang, oʻzingga yaxshi boʻlarmidi. Men senga qayliq topib berishim lozim. 2 Oʻsha Boʻaz bizning qarindoshimiz, sen uning choʻrilari bilan birga boʻlgan eding–ku. Bilasanmi, bugun kechqurun* u xirmonda arpasini sovuradi. 3 Endi sen yuvinib–taranib, chiroyli kiyimlaringni kiy, keyin xirmonga bor. Lekin Boʻaz yeb–ichib boʻlmaguncha, unga koʻrinma. 4 U uxlashga yotganda, yotgan joyini bilib olgin–da, soʻng borib oyoq tomonini ochib, oʻsha yerda yot*. Nima qilishni uning oʻzi aytadi.

5 Rut qaynanasiga:

— Hammasini aytganingizday qilaman, — dedi.

6 Rut xirmonga joʻnadi. Yetib kelib, qaynanasi aytganday qildi. 7 Boʻaz yeb–ichdi, vaqti chogʻ boʻldi. Soʻng gʻaram yoniga borib yonboshladi–da, uxlab qoldi. Rut ohista kelib, uning oyoq tomonini ochib, yotdi. 8 Yarim kechasi Boʻaz choʻchib uygʻonib ketdi. Qarasa, oyoq tomonida bir ayol yotibdi.

9 — Kimsan? — deb soʻradi ayoldan. Rut unga:

— Sizning choʻringiz Rutman. Choʻringizni panohingizga olsangiz*, axir, siz bizning oilamizni panohingizga olishga burchli odamsiz*, — dedi. 10 Boʻaz Rutga dedi:

— Seni Xudo yorlaqasin, qizim. Oilangga sening bu safargi qilgan sadoqating oldingisidan ham aʼlodir. Sen kambagʻal yoki boyvachcha yigitlarning ortidan chopmading. 11 Endi xavotirlanma, qizim. Aytganlaringning hammasini muhayyo qilaman. Butun shahar xalqi sening olijanob ayol ekanligingni biladi. 12 Toʻgʻri, men sizlarning oilangizni panohimga olishga burchli odamman, lekin bu ishga mendan ham yaqinrogʻi bor. 13 Shu kecha oʻtsin, yotaver. Agar ertaga u kishi senga nisbatan oʻz burchini oʻtamoqchi boʻlsa, mayli, seni olaversin. Bordi–yu, oʻz burchini oʻtashni xohlamasa, men oʻz zimmamga olaman. Xudo haqi, men oʻz zimmamga olaman. Ertalabgacha uxlayver. 14 Lekin tong paytida turib ket, xirmonga kelganingni odamlar bilmay qoʻya qolishsin.

Rut Boʻazning oyoq tomonida sahargacha uxladi. Koʻz koʻrmaydigan, gʻira–shira tong paytida Rut oʻrnidan turdi. 15 Boʻaz Rutga:

— Sholroʻmolingni ochib, ushlab tur, — dedi.

Rut sholroʻmolini ochib ushlab turdi. Boʻaz esa olti togʻora* arpa oʻlchab,

sholroʻmolga soldi va orqasiga koʻtartirib qoʻydi. Keyin oʻzi shaharga joʻnab ketdi.

16 Rut esa qaynanasi oldiga qaytdi. Qaynanasi undan:

— Nima boʻldi, qizim? — deb soʻradi.

Boʻaz Rutga qanday munosabatda boʻlgan boʻlsa, Rut hammasini qaynanasiga aytib berdi.

17 — U, qaynanangning oldiga quruq qoʻl bilan borma, deb mana bu olti togʻora arpani ham berib yubordi, — dedi Rut.

18 Qaynanasi Rutga dedi:

— Qizim, bu ishlar nima bilan tugaydi, hali bilmaysan. Kutib turgin–chi, u bu ishni bugunoq oxiriga yetkazmay qoʻymasa kerak.

4–BOB

Boʻaz Rutga uylanadi

1 Boʻaz shahar darvozasi oldiga chiqib oʻtirdi*. Oʻsha payt Boʻaz aytgan yaqin qarindoshi* yonginasidan oʻtib qoldi. Boʻaz uning ismini aytib chaqirib:

— Bu yoqqa keling, oʻtiring, birodarim, — dedi.

Qarindoshi yaqin kelib oʻtirdi. 2 Boʻaz shahar oqsoqollaridan oʻn kishini guvohlikka chaqirib:

— Shu yerda oʻtiringlar! — dedi. Ular kelib oʻtirishdi.

3 Boʻaz qarindoshiga dedi:

— Moʻab yurtidan qaytib kelgan Naima bor–ku, u Elimalek akamizning dalasini sotmoqchi. 4 Men shu yerda oʻtirganlar va qavmim oqsoqollari huzurida oʻsha dalani sotib olasizmi, yoʻqmi, bilay dedim. Agar siz qarindoshlik burchingizni oʻtashni xohlasangiz, mayli, sotib olavering. Bordi–yu, xohlamasangiz, ayting, men bilayin. Chunki bu burchni oʻtash birinchi navbatda sizga tushadi. Sizdan keyin navbat meniki boʻladi.

U kishi:

— Qarindoshlik burchimni men oʻtayman, — dedi. 5 Boʻaz dedi:

— Xoʻp. Lekin siz Naimaning dalasini xarid qilganingizda, dala bilan birga marhum Maxloʻnning* bevasi Moʻablik Rutni ham olishingiz kerak. Chunki marhumning nomi oʻz mulkidan yoʻqolib ketmasligi shart.

6 Shunda qarindoshi Boʻazga:

— Unday boʻlsa, men uni ololmayman, aks holda, oʻzimning mulkimni xavf ostiga qoʻygan boʻlaman*. Zimmamdagi qarindoshlik burchimni siz oʻtayvering, mening ilojim yoʻq, — dedi.

7 Ilgari Isroilda qarindoshlik burchini oʻtamoqchi yoki mol–mulkini almashtirmoqchi boʻlsalar, dalil–isbot tariqasida bittasi chorigʻini yechib, ikkinchisiga berardi. Mana shu odat Isroilda qonuniy guvohlik oʻrnini bosardi.

8 Shunday qilib, qarindoshi Boʻazga:

— Oʻzingiz sotib olavering, — dedi–da, chorigʻini yechib berdi. 9 Shundan keyin Boʻaz oqsoqollarga va oʻsha yerdagi boshqa odamlarga murojaat qildi:

— Sizlar guvohsiz: men bugun Elimalekdan Xilyon va Maxloʻnga qolgan hamma mulkni Naimadan sotib olyapman. 10 Yana Maxloʻnning xotini Moʻablik Rutni ham oʻz nikohimga olyapman, toki marhumning nomi oʻz mulkida qolsin, birodarlari orasida va

kindik qoni to‘kilgan yurtida nomi yo‘qolib ketmasin. Bugun sizlar bunga guvoh bo‘lib turibsizlar.

11 Shunda shahar darvozasi yonida turgan odamlar va oqsoqollar:

— Biz guvohmiz, — dedilar. — Egamiz sening xonadoningga keladigan ayolni Rohila va Leaxday qilsin, ana o‘sha bibilardan Isroil xalqi bino bo‘lgan. Efratda boyliklar egasi bo‘lgin, Baytlahmda noming ulug‘ bo‘lgay. 12 Sening xonadoning Yahudoga Tamara tug‘ib bergan o‘g‘li bobomiz Paraz* xonadoniday barakali bo‘lsin. Egamiz mana shu juvon orqali senga o‘shanday buyuk nasl ato etsin.

Naimaga Egamiz marhamat qiladi

13 Shunday qilib, Bo‘az Rutga uylandi. Ular turmush qurib, bir yostiqqa bosh qo‘yishdi. Egamizning marhamati bilan Rut homilador bo‘lib, o‘g‘il tug‘di. 14 Ayollar Naimaga aytishdi:

— Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin! U bugun senga g‘amxo‘rlik qiladigan nevara* berdi, merosxo‘rsiz qoldirmadi. Merosxo‘ringning nomi Isroilda ulug‘ bo‘lsin. 15 U tufayli hayoting yana shodlikka to‘ladi, qariganingda suyanchig‘ing bo‘ladi. Chunki bu o‘g‘ilni seni yaxshi ko‘radigan, sen uchun hatto yetti o‘g‘ildan ham a’lo bo‘lgan kelining tug‘di.

16 Naima chaqaloqni o‘ziga oldi, bir dam bag‘ridan uzmadi. O‘zi enagalik qildi.

17 Qo‘shni ayollar: “Naima uchun o‘g‘il tug‘ildi”, deb chaqaloqqa Obid* ismini berdilar.

Shoh Dovud — Bo‘az va Rutning chevarasi

Obid Dovudning padari buzrukvori Essayning otasi bo‘ldi. 18 Parazdan Dovudgacha bo‘lgan avlod–ajdod quyidagicha:

Parazdan Xazron bunyod bo‘ldi.
19 Xazrondan Ram bunyod bo‘ldi.
Ramdan Ominadav bunyod bo‘ldi.
20 Ominadavdan Naxsho‘n bunyod bo‘ldi.
Naxsho‘ndan Salmo‘n bunyod bo‘ldi.
21 Salmo‘ndan Bo‘az bunyod bo‘ldi.
Bo‘azdan Obid bunyod bo‘ldi.
22 Obiddan Essay bunyod bo‘ldi.
Essaydan Dovud bunyod bo‘ldi.

IZOHLAR

Tavrot qonuniga muvofiq — Qonunlar 23:3-4 ga qarang.

1:1 *hakamlar* — o‘sha vaqtda Isroilning yo‘lboshchilari hakamlar deb atalgan. Isroil xalqi dushmanlariga qarshi urush ochganda, hakamlar lashkarboshi sifatida xizmat qilardi. Shuningdek, hakamlar qozi vazifasini, ayrim hollarda diniy vazifalarni ham bajarar edilar. Hakamlar 2:16-19 ga qarang.

1:1 *Mo‘ab yurti* — O‘lik dengizning sharq tomonida joylashgan. Mo‘ab xalqi butlarga sig‘inardi. Bu xalq ko‘pincha Isroil xalqining dushmani edi.

1:1 *Baytlahm shahri* — Quddusdan qariyb 8 kilometr janubda joylashgan.

1:2 *Efrat* — Baytlahm shahri atrofidagi yerlar.

1:4 *…O‘rpa…Rut…* — O‘rpa Xilyonning xotini, Rut Maxlo‘nning xotini edi (4:10 ga qarang).

1:11 *Qornimda yana o‘g‘illarim bormidiki, sizlarga umr yo‘ldoshi bo‘lsa?!* — Tavrot qonuniga ko‘ra, odam farzand ko‘rmasdan vafot etgan bo‘lsa, marhumning aka–ukalaridan yoki eng yaqin urug‘laridan biri uning naslini davom ettirish maqsadida beva qolgan xotinni olishi kerak edi. Ulardan tug‘ilgan bolalar o‘lgan odamniki hisoblangan. Shu tariqa marhumning nomi davom etavergan (Qonunlar 25:5-10 ga qarang). Maxlo‘n va Xilyonning aka–ukalari bo‘lmagani sababli, ularning oilasi nomini davom ettirish uchun deyarli imkon yo‘q edi.

1:15 *…o‘z xudolariga…* — yoki *…o‘z xudosiga….* Xamo‘sh Mo‘ab xalqining xudosi edi (3 Shohlar 11:33 ga qarang).

1:17 *Meni sizdan faqat o‘lim ajrata oladi* — yoki *Hatto o‘lim ham meni sizdan ajrata olmaydi*. Bu ibora shundan dalolat beradiki, o‘sha davrdagi odatga ko‘ra, Rut Naima bilan qolishga, hatto Naimaning oilasi xilxonasiga dafn qilinishga rozi edi.

1:20 *Naima* — ibroniychadagi ma’nosi *yoqimli*.

1:20 *Musibat* — ibroniycha matnda *Mara*, ma’nosi *achchiq, qiyinchilik*.

1:22 *…arpa o‘rimi boshlangan edi* — aprelning oxiri yoki mayning boshi.

2:2 *…boshoq terib kelardim…* — qonunga binoan, yig‘im–terim paytida kambag‘allar terib olsinlar deb, o‘roqchilar dalada boshoq tashlab ketishardi (Levilar 19:9-10, Qonunlar 24:19 ga qarang).

2:17 *…bir tog‘oradan ko‘proq…* — ibroniycha matnda *…taxminan bir efa…*, taxminan 22 litrga to‘g‘ri keladi.

2:20 *marhumlar* — Naima marhum eri va o‘g‘illarini nazarda tutyapti.

2:20 *…oilamizni o‘z panohiga olishga burchli odamlardan…* — ibroniycha matnda maxsus termin bo‘lib, uning so‘zma–so‘z tarjimasi *…qutqaruvchilarimizdan….* Og‘ir muhtojlikda qolgan oila a’zolariga g‘amxo‘rlik qilishga burchli yaqin qarindosh. Bunday vaziyatda o‘sha odam Naima va Rutga yordam berib, g‘amxo‘rlik ko‘rsatishi, ikkovining marhum erlari Elimalek va Maxlo‘nning oilasi nomini davom ettirishga yordam berishi kerak edi (Qonunlar 25:5-10 ga qarang).

2:23 *…arpa va bug‘doy o‘rimi tugagunga qadar…* — iyunning oxirigacha.

3:2 *bugun kechqurun* — oqshomgi shabadada dehqon donini to‘pondan ajratib tozalash uchun xirmonda ishlardi.

3:4 *…oyoq tomonini ochib, o‘sha yerda yot* — shunday qilib Rut o‘zining himoyachiga muhtoj ekanligini bildiryapti. Uning bu harakati Bo‘az bilan turmush qurish niyati borligini ko‘rsatayotgan bo‘lishi mumkin.

3:9 *Cho‘ringizni panohingizga olsangiz…* — ibroniycha matnda *Kiyimingizning etagini ustimga yopib qo‘ysangiz*…. Bu ibora nikoh orqali ayol kishini himoya qilishga va xavfsizligini ta’minlashga ramziy ma’noda ishora qiladi (Hizqiyol 16:8 ga qarang).

3:9 *…oilamizni panohingizga olishga burchli odamsiz…* — ibroniycha matnda maxsus termin bo‘lib, uning so‘zma–so‘z tarjimasi *…qutqaruvchisiz…* (shu bobning 12–oyatida ham bor). 2:20 ning ikkinchi izohiga qarang.

3:15 *olti tog‘ora* — ibroniycha matnda *olti o‘lchov*, miqdori noma’lum.

4:1 *…shahar darvozasi oldiga chiqib o‘tirdi* — qadimgi paytlarda oqsoqollar va obro‘li odamlar shahar darvozasi oldida yig‘ilib, hakamlik vazifasini bajarardilar. U yerda turli masalalarni ko‘rib chiqib, hal qilardilar.

4:1 *yaqin qarindoshi* — ibroniycha matnda maxsus termin bo‘lib, uning so‘zma–so‘z tarjimasi *qutqaruvchi* (shu bobning 3, 6, 8–oyatlarida ham bor). 2:20 ning ikkinchi izohiga qarang.

4:5 *Maxlo‘n* — Elimalekning o‘g‘li (1:2-5 ga qarang).

4:6 *…o‘zimning mulkimni xavf ostiga qo‘ygan bo‘laman* — qadimgi Isroildagi qonunga ko‘ra, Rutdan tug‘ilgan bola o‘sha yaqin qarindosh sotib olgan yerga merosxo‘r bo‘lar edi. U odam vafot etgandan keyin esa o‘zining farzandlari o‘sha sotib olingan yerga qonuniy jihatdan egalik qila olmas edilar. Ularning bunga huquqlari ham bo‘lmas edi. Yana 2:20 ning ikkinchi izohiga qarang.

4:12 *…bobomiz Paraz…* — Yahudoning o‘g‘illaridan biri, u Bo‘azning hamda Baytlahmda yashagan ko‘pchilikning bobokaloni edi. Tamara marhum erining nomini davom ettirish uchun Parazni dunyoga keltirgan edi (Ibtido 38:1-30 ga qarang).

4:14 *g‘amxo‘rlik qiladigan nevara* — ibroniycha matnda maxsus termin bo‘lib, uning so‘zma–so‘z tarjimasi *qutqaruvchi*. Og‘ir muhtojlikda qolgan oila a’zolariga g‘amxo‘rlik qilishi uchun nazarda tutilgan yaqin qarindosh. Nevara Naima va Rutning marhum erlari Elimalek bilan Maxlo‘nning oilasi nomini davom ettirishi, ulg‘ayganda Naima va Rutga suyanchiq bo‘lishi kerak edi.

4:17 *Obid* — ibroniychadagi ma’nosi *xizmatkor, qul*.

SHOHLAR
(BIRINCHI KITOB)

Kirish

“Shohlar (birinchi kitob)”da Isroil yurtida tuzumning o‘zgarishi, ya’ni xalqqa endi oldingidek hakamlar emas, balki shoh hukmronlik qilishi bilan bog‘liq bo‘lgan voqealar bayon qilinadi. Xalqning so‘nggi hakami Shomuil payg‘ambar, Isroilning birinchi shohi Shoul va Xudo tanlagan navbatdagi shoh Dovud kitobning bosh qahramonlaridir.

“Shohlar (birinchi kitob)” va “Shohlar (ikkinchi kitob)”ning asl nusxasi bitta ibroniycha kitob bo‘lib, ikkala qismini bitta o‘ramga joylash uzunlik qilgani uchun, kitob ikki qismga — “Shohlar (birinchi kitob)” va “Shohlar (ikkinchi kitob)”ga bo‘lingan.

“Shohlar (birinchi kitob)”ning ilk qismida (1-7–boblar) Shomuil payg‘ambarning hayoti to‘g‘risida hikoya qilinadi. Shomuil Isroilga hujum qilayotgan g‘animlarga qarshi jangda Isroil lashkariga yordam beradi. Lekin Shomuil keksaygach, lashkarga shoh yo‘lboshchilik qilsin deb, xalq Xudodan bir shoh so‘rashga qaror qilib, Xudoni ranjitadi. Chunki shu paytgacha Xudoning O‘zi Isroil xalqining Shohi edi. Xalq Xudodan bir shoh so‘raganda esa, Isroil taxtiga inson o‘tiradi. Shunga qaramay, Xudo taxtga o‘tqazgan insonni vositachi sifatida ishlatib, O‘zi xalqning haqiqiy Shohi bo‘lib qolaveradi.

Kitobning ikkinchi qismida (8-15–boblar) Xudo Shomuilga Shoulni Isroilning birinchi shohi qilib tayinlash to‘g‘risida amr beradi. Shoul va uning to‘ng‘ich o‘g‘li Yo‘natan Ommon hamda Filist xalqlariga qarshi olib borgan ko‘p janglarda g‘olib chiqadilar, lekin Shoul Xudoga chin dildan itoat etmaydi. Shoulning itoatsizligi oqibatida Xudo uni shoh sifatida rad etib, uning naslini Isroil taxtidan mahrum qiladi.

Kitobning uchinchi qismida (16-31–boblar) Xudo Shomuilga Dovud ismli yosh yigitni navbatdagi shoh qilib tayinlash to‘g‘risida amr beradi. Kitobda yana Dovud bahaybat Filist jangchisi Go‘liyotni o‘ldirgandan keyin tez orada milliy qahramon bo‘lib ketgani to‘g‘risida ham hikoya qilinadi. Dovud tobora obro‘–e’tibor orttirib boraveradi. Shoul esa Dovuddan shubhalanadi. Garchi Dovud Shoulning qizi Mixalga uylangan va Shoulning to‘ng‘ich o‘g‘li Yo‘natan bilan qadrdon do‘st bo‘lsa ham, Shoul Dovudni o‘ldirish payiga tushadi. “Shohlar (birinchi kitob)”ning qolgan qismida Dovudning Shouldan qochib qutulgani va sahroda o‘zining kichik lashkariga yo‘lboshchi bo‘lgani to‘g‘risida hikoya qilinadi.

Kitob Shoul va uning uch o‘g‘li Filist lashkari bilan bo‘lgan jangda halok bo‘lgani to‘g‘risidagi ayanchli voqealar bilan tugaydi. Tanlangan shohning muvaffaqiyati yoki mag‘lubiyati Xudoga bo‘lgan itoatkorligiga bevosita bog‘liq, degan g‘oya kitobda yaqqol sezilib turadi.

1–BOB

Elqana va uning Shilo‘dagi oilasi

[1] Efrayim qirlarida joylashgan Rama* shahrida bir odam yashardi. Uning ismi Elqana bo‘lib, Efrayim qabilasining Zuf urug‘idan bo‘lgan Yeroxam deganning o‘g‘li edi. Yeroxam — Elixuning o‘g‘li, Elixu — To‘xuning o‘g‘li, To‘xu — Efrayim qabilasiga

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

mansub bo‘lgan Zufning o‘g‘li edi. 2 Elqananing Xanna va Paninna ismli ikki xotini bo‘lib,
Paninnaning bolalari bor edi–yu, Xanna befarzand edi.
3 Elqana har yili Sarvari Olamga sajda qilib, qurbonlik keltirmoq uchun o‘z shahridan
Shilo‘ga* borardi. Shilo‘da Elax degan odamning Xo‘fnax va Finxaz degan ikki o‘g‘li
bo‘lib, ular Egamizning ruhoniylari edilar.
4 Elqana qurbonlik qilgan kuni xotini Paninnaga, o‘g‘illari bilan qizlariga bir
ulushdan* bersa, 5 Xannaga esa yaxshi joyidan bir ulush berardi*. Chunki Egamiz
Xannani bepusht qilib qo‘ygan bo‘lsa ham, Elqana uni yaxshi ko‘rardi. 6 Xannani Egamiz
befarzand qilib qo‘ygani uchun, kundoshi Paninna Xannaga qattiq ozor berib xafa
qilardi. 7 Har yili Xanna Egamizning uyiga* borganda ham shu voqea yuz berardi:
Xannani kundoshi xafa qilar, u esa yig‘lab hech narsa yemasdi. 8 Eri Elqana esa:
— Xanna, nega yig‘layapsan, nimaga ovqat yemayapsan? — derdi. — Nimaga bu
qadar g‘amginsan? Sen uchun men o‘nta o‘g‘ildan ham afzal emasmanmi?!

Xanna va ruhoniy Elax

9 Bir kuni ular Shilo‘da yeb–ichib bo‘lganlaridan keyin, Xanna o‘rnidan turdi. Ruhoniy
Elax Egamizning uyi eshigi yonidagi kursida o‘tirgan edi. 10 Xanna dili xufton, achchiq–
achchiq yig‘lab, Egamizga ibodat qilib, 11 shunday va’da berdi:
— Ey Sarvari Olam! Shu cho‘ringning qayg‘usiga nazar solib, uni yodga olsang,
cho‘ringni unutmay, unga bir o‘g‘il ato etsang, o‘sha o‘g‘limni umrbod Senga nazr qilgan
bo‘lardim*, uning boshiga ustara tegmasdi.
12 Xanna Egamiz huzurida uzoq vaqt ibodat qildi. Elax esa uning og‘ziga qarab
turardi. 13 Xanna ichida gapirar, ovozi eshitilmas, faqat lablari qimirlardi. Shuning uchun
Elax Xannani mast bo‘lsa kerak, deb o‘yladi:
14 — Qachongacha sarxush bo‘lib yurasan?! Endi sharobdan voz kech! — dedi.
15 — Yo‘q, unday emas, hazratim, — dedi Xanna. — Men ko‘ngli g‘amga to‘la bir
ayolman. Na sharob ichganman, na bo‘za. Faqat yuragimdagini Egamga to‘kib
solyapman. 16 Bu cho‘ringizni allaqanday yaramas xotin deb o‘ylamang. G‘am–
qayg‘ularim ko‘pligidan, shu paytgacha ibodat qilyapman.
17 — Eson–omon bor, — dedi Elax. — Isroil xalqining Xudosi tilagingni bajo keltirsin.
18 — Men, cho‘ringizni iltifotingizga sazovor biling, — dedi Xanna. So‘ng borib ovqat
yedi, endi chehrasi g‘amgin emas edi.

Shomuil tug‘iladi va Xudoga bag‘ishlanadi

19 Ertasiga Elqana oilasi bilan tong saharda turib, Egamizga sajda qilishdi. Keyin
Ramaga — uylariga qaytib kelishdi. Elqana xotini Xanna bilan qovushdi. Egamiz
Xannaga marhamat qildi. 20 Xanna homilador bo‘ldi va vaqt–soati yetib o‘g‘il tug‘di. “Uni
Egamizdan tilab oldim”, deb otini Shomuil* qo‘ydi.
21 Elqana Egamizga atab yillik qurbonlik marosimini o‘tkazish va va’dasini ado etish
uchun oilasi bilan birga Shilo‘ga bordi. 22 Xanna bu safar bormadi. U eriga:
— Go‘dak ko‘krakdan chiqqandan keyin* olib boraman, u Egamizning huzurida
bo‘lib, Unga xizmat qiladi, umr bo‘yi o‘sha yerda qoladi, — dedi.
23 — Senga nima ma’qul bo‘lsa, shunday qilaver, — dedi Elqana. — Go‘dak
ko‘krakdan chiqquncha shu yerda bo‘l. Egamiz O‘z va’dasini bajo qilsin*.
Xanna uyda qolib, o‘g‘li ko‘krakdan chiqquncha, uni emizdi. 24 Kichkintoy ko‘krakdan
chiqdi. So‘ng Xanna uch yoshli buqa*, bir tog‘ora* un va bir mesh sharob olib, o‘g‘lini

Egamizning Shiloʻdagi uyiga olib keldi. Bola hali yosh edi. 25 Buqani soʻyishgandan keyin,
bolani Elaxning oldiga olib kelishdi.
26 — Ey hazrat, meni eslaysizmi? — dedi Xanna. — Shu yerda, huzuringizda turib
Egamga ibodat qilgan oʻsha ayol menman. 27 Men mana shu bola uchun Egamga iltijo
qilgan edim, Egam tilagimni bajo qildi. 28 Shuning uchun uni Egamga bagʻishladim, umr
boʻyi Unga atalgan boʻlsin, dedim.
Ular* shu yerda Egamizga sajda qildilar.

2–BOB

Xannaning ibodati

1 Xanna shunday ibodat qildi:

"Egam tufayli koʻnglim togʻday koʻtarildi,
Quvvatimni oshirgan Oʻshadir.
Dushmanlarim oldida maqtanarman,
Najot berganing uchun sevinarman.

2 Egam — tanho va Muqaddas Xudo,
Ha, Sendan boshqasi yoʻq, ey Egam.
Xudoyimizday qoya yoʻqdir.

3 Ortiq manmanlikka berilmang ogʻiz koʻpirtirib,
Ogʻzingizdan kibrli soʻzlar chiqmasin.
U hammasini biladigan Xudodir,
U odamlarning xatti–harakatini hukm qiladi.

4 Kuchlilarning yoylari sinib ketadi,
Ojizlar quvvat kamarini bogʻlaydi.
5 Toʻq boʻlganlar luqma non uchun mardikordirlar,
Och boʻlganlar esa endi toʻqdirlar.
Befarzand ayol yetti bola tugʻar,
Serfarzand ayol esa kimsasiz qolar.
6 Jonni oladigan ham Egamizdir,
Jonni ato qiladigan ham Egamizdir.
Oʻliklar diyoriga* U tushirar
Va yana qayta olib ham chiqar.
7 U kimnidir yoʻqsil, kimnidir boy qilar,
Kimnidir yerga urar, kimnidir yuksaltirar.
8 Bechorahollarni U tuproqdan koʻtarar,
Faqirlarni axlatdan olib chiqib yuksaltirar.
Ularga shahzodalar yonidan joy berar,
Shuhrat taxtini meros qilib berar.
Chunki Egamnikidir zamin ustunlari*,
Ustunlarning ustiga qoʻygandir U olamni.
9 Sodiq bandalarini U himoya qilar,

Fosiqlar esa zulmatda so‘nib qolar.
Zero, kuch ila zafarga yetishmas inson.

10 Egamizga qarshi turganlar parcha–parcha bo‘lajak,
Xudoyi Taolo ularga qarshi osmonni gumburlatajak.
Butun olamni Egamiz hukm qilajak,
O‘zi moy surtib tanlagan shohiga kuch ato etib,
Uning quvvatini oshirajak.”

11 Shundan keyin Elqana oilasi bilan Ramaga — uyiga jo‘nadi. Kichkina Shomuil esa ruhoniy Elaxning huzurida qoldi va Egamizga xizmat qila boshladi.

Elaxning yaramas o‘g‘illari

12 Elaxning o‘g‘illari yaramas yigitlar edi. Ular Egamizni hurmat qilmas, 13 xalq oldidagi o‘z ruhoniylik burchlarini mensimasdilar. Birortasi kelib qurbonlik so‘yib, go‘shtini qaynatayotganda, Elax o‘g‘illarining xizmatkori uch tishli sanchqi bilan kelardi. 14 Xizmatkor sanchqini qozonga yoki tovaga tiqardi. Sanchqiga ilinganini Elaxning o‘g‘illariga olib borardi. Ular Shilo‘ga kelgan Isroil xalqining hammasiga shunday munosabatda bo‘lishardi. 15 Hatto qurbonlikning yog‘ini kuydirmasdan oldin*, ruhoniyning xizmatkori kelib, qurbonlik qilayotgan odamga shunday derdi:

— Ruhoniyga qovurish uchun go‘sht ber! U sendan qaynatilganidan emas, xomidan qabul qiladi.

16 Qurbonlik qilayotgan odam:

— Oldin Egamizga atab qurbonlikning yog‘ini kuydirib olay, keyin xohlaganingcha olaver, — deydigan bo‘lsa, xizmatkor:

— Yo‘q, hozir berasan, yo‘qsa zo‘rlik bilan tortib olaman, — deb javob berardi.

17 Elax o‘g‘illarining bu gunohi Egamiz oldida juda og‘ir edi, chunki ular Egamizga atalgan nazr–niyozlarga shunday hurmatsizlik qilishardi.

Yosh Shomuil Shilo‘da

18 Yosh Shomuil esa shu paytda ruhoniylarning muqaddas libosini* kiyib, Egamiz huzurida xizmat qilib yurardi. 19 Har yilgi qurbonlikni ado etish uchun onasi bilan otasi bu yerga kelishar, onasi o‘zi tikkan kiyimni* o‘g‘liga olib kelardi. 20 Ruhoniy Elax esa Elqana bilan uning xotinini duo qilib, Elqanaga: “Xudodan tilab olib, Unga bag‘ishlagan farzandingning o‘rniga Egamiz senga shu xotindan yana farzandlar bersin”, deb aytardi. Shundan keyin ular uylariga ketishardi.

21 Egamiz Xannaga g‘amxo‘rlik qildi. U homilador bo‘lib, yana uch o‘g‘il, ikki qiz tug‘di. Yosh Shomuil esa Egamizning huzurida o‘sib–ulg‘aydi.

Elax va uning o‘g‘illari

22 Elax juda keksayib qolgan edi. U o‘g‘illarining jamiki Isroil xalqiga yomon munosabatda bo‘lishayotganini, Uchrashuv chodiriga* kiraverishda xizmat qiladigan ayollar* bilan zino qilishayotganini eshitib turardi. 23 Elax o‘g‘illariga derdi:

— Nimaga bunday qilyapsizlar? Qilayotgan qabih ishlaringiz hammaning og‘zida. 24 Bunday qilmanglar, o‘g‘illarim! Egamizning xalqi orasida yoyilgan gap–so‘zlar yaxshi emas. 25 Odam odamga qarshi gunoh qilsa, Xudo vositachilik qiladi. Ammo odam Egamizga qarshi gunoh qilsa, o‘rtada kim vositachilik qila oladi?!

Biroq o‘g‘illari otalarining gapini quloqlariga olmasdilar. Shuning uchun Egamiz ularni o‘ldirishga qaror qilib qo‘ygan edi.

26 Yosh Shomuil esa ulg‘ayib, Egamizning va xalqning olqishiga sazovor bo‘layotgan edi.

Elax xonadoni haqida bashorat

27 Bir kuni Elaxning oldiga bir payg‘ambar kelib, shunday dedi:

— Egamiz senga aytmoqda: “Isroil xalqi Misr yurtida fir’avnga qul bo‘lib yurganda, O‘zimni ota–bobolaringga zohir qildim–ku! 28 Bobong Horun Mening qurbongohimga chiqsin, qurbonlik kuydirib, oldimda efodni kiyib yursin deb, jamiki Isroil qabilalari orasidan Men uni O‘zimga ruhoniy qilib tanlab olgan edim. Buning ustiga, Horun avlodining ulushi bo‘lsin deb, hamma kuydiriladigan qurbonliklardan ham berdim. 29 Shunday bo‘lgach, Men buyurgan qurbonlik va nazrlarni nimaga pisand qilmayapsizlar?! Nimaga xalqim Isroil bergan hamma nazrlardan eng yaxshi ulushlarni olib o‘zingiz yeb semiryapsizlar?! Nimaga o‘g‘illaringni Mendan ortiq ko‘ryapsan?!

30 Shuning uchun Men, Isroil xalqining Xudosi — Egangiz, aytamanki, avloding va otangning avlodi Menga abadiy xizmat qiladilar, deb aytgan bo‘lsam ham, endi bunday bo‘lmaydi! Meni izzat qilganni Men ham izzat qilaman, Meni xor qilgan esa sharmanda bo‘lar. 31 Shunday kunlar yaqinlashmoqda: Men sening va otangning xonadonini yo‘qotaman. Natijada xonadoningdagi hamma kimsa ajalidan besh kun burun o‘ladi. 32 Men Isroil xalqi ustiga yog‘diradigan rohat–farog‘atni sen ko‘rib, kulfat ichra ularga hasad qilasan. Sening xonadoningdan hech kim uzoq umr ko‘rmaydi. 33 Xonadoningdan faqat bittasini yo‘q qilmasdan asrab qolaman. Lekin uning ko‘zlari yoshga, yuragi g‘am–g‘ussaga to‘ladi. Butun xonadoning ahli juvonmarg ketadi. 34 Ikkala o‘g‘ling — Xo‘fnax bilan Finxazning boshiga tushadigan ko‘rgilik senga bir alomat bo‘lsin: ikkovi ham bir kunda nobud bo‘ladi.

35 Mening xohish–irodamni amalga oshiradigan sadoqatli bir ruhoniyni O‘zim uchun tayin etaman, u ko‘nglimdagiday xizmat qiladi. Uning avlodini boqiy qilaman, Men moy surtib tanlagan shoh oldida u umr bo‘yi xizmat qiladi. 36 Xonadoningda tirik qolgan har bir odam qora chaqaga va bir burda nonga zor bo‘lib uning oldiga keladi, o‘tinaman, menga biror ruhoniylik vazifasini ber, tirikchiligimni o‘tkazib turay, deb yolvorib ta’zim qiladi.”

3–BOB

Xudo Shomuilga sado beradi

1 O‘spirin Shomuil Elaxning qo‘li ostida Egamizga xizmat qilib yurardi. O‘sha paytlari Egamizning kalomi kam kelar, vahiy ham ahyon–ahyonda bo‘lardi.

2 Elaxning ko‘zlari xiralashib, ko‘rmaydigan bo‘lib qolgan edi. Bir kuni kech kirganda Elax yotog‘ida yotardi. 3 Shomuil esa Egamizning Ma’badida* yotgan edi, Xudoning Sandig‘i ham o‘sha yerda edi. Xudoning chirog‘i* hali ham yonib turardi. 4 Shu payt Egamiz Shomuilni chaqirib qoldi. Shomuil:

— Labbay, hazratim! — deb ovoz berdi 5 va Elaxning oldiga yugurib kelib:

— Meni chaqirgan edingiz, shu yerdaman, — dedi.

— Yo‘q, seni men chaqirmadim, qayt, borib joyingga yot, — dedi Elax. Shomuil qaytib borib yotdi. 6 Egamiz yana:

— Shomuil! — deb chaqirdi. Shomuil yana turib, Elaxning oldiga kirdi va:
— Meni chaqirgan edingiz, shu yerdaman! — dedi.
— Chaqirganim yoʻq, oʻgʻlim, qayt, borib joyingga yot, — dedi u.
7 Shomuil Egamizni hali tanimas, Egamizning kalomi hali unga ayon boʻlmagan edi.
8 Egamiz uchinchi marta Shomuilga sado berdi. Shomuil oʻrnidan turib Elaxning oldiga keldi–da:
— Meni yana chaqirdingiz–ku, men shu yerdaman, — dedi. Shunda Elax bildiki, oʻspirinni Egamiz chaqirayotgan ekan. 9 Elax Shomuilga dedi:
— Borib joyingga yot, oʻsha ovoz seni yana chaqirib qolsa, “Gapiraver, ey Egam, quling tinglayotir”, degin.
Shomuil borib, joyiga yotdi. 10 Egamiz oʻsha yerda zohir boʻldi va oldingiday:
— Shomuil, Shomuil! — deb chaqirdi.
— Gapiraver, ey Egam! Quling tinglayotir! — deb javob berdi Shomuil. 11 Egamiz dedi:
— Shomuil! Men Isroilda shunday bir ish qilmoqchimanki, eshitganning boshidan hushi uchadi. 12 Oʻsha kuni Men Elaxning xonadoni toʻgʻrisida nima aytgan boʻlsam, hammasini bajo qilaman, boshlagan ishimni oxiriga yetkazaman. 13 Elaxga, sening xonadoningni to abad jazolayman, deb uni ogohlantirgan edim. Uning oʻgʻillari koʻp gunoh qilib, oʻzlariga la’nat orttirdilar. Elax esa buni bila turib, ularni tergamadi. 14 Shu sababdan ont ichib aytamanki, Elax xonadonining bu gunohlarini aslo kechirmayman. Ularning qilgan gunohlarini to abad qurbonligu nazr qilish bilan yuvib boʻlmaydi.
15 Shomuil ertalabgacha oʻrnida yotdi. Keyin turib, Egamizning uyi* eshiklarini ochdi. Oʻsha vahiyni Elaxga aytishdan qoʻrqdi. 16 Shu payt Elax:
— Shomuil, oʻgʻlim! — deb chaqirdi.
— Labbay, shu yerdaman, — deb Shomuil Elaxga yaqin keldi.
17 — Egamiz senga nimalar dedi? — soʻradi Elax. — Zinhor mendan yashira koʻrma. Egamizning senga aytgan gaplaridan birortasini mendan yashirsang, Xudo seni yomon koʻyga solsin, hatto undan battarrogʻini qilsin!
18 Shomuil Elaxdan hech narsani yashirmay aytib berdi.
— U Egamizdir, — dedi Elax, — Unga nima ma’qul boʻlsa, oʻshani bajo qiladi.
19 Shomuil ulgʻayaverdi, Egamiz doimo u bilan birga boʻldi, Shomuil bashorat qilgan hamma narsani Egamiz roʻyobga chiqardi. 20 Dandan Bershebagacha boʻlgan jamiki Isroil xalqi Shomuil haqiqatan ham Egamizning paygʻambari ekanligini bildi. 21 Egamiz Shiloʻda yana takror–takror zohir boʻlib, oʻsha yerda Oʻz kalomi orqali Shomuilga ayon boʻlardi.

4–BOB

1 Butun Isroilda Shomuilning soʻzi vojib edi.

Muqaddas Ahd sandigʻi qoʻldan ketadi

Shu orada* Filistlar urush boshlagan edi, Isroil lashkari ularga qarshi otlandi. Isroil lashkari Evanzor degan joyda, Filistlar esa Ofoq shahrida* qarorgoh qurdilar. 2 Filistlar Isroil lashkariga qarshi saf tortdilar. Jang boshlandi, Filistlar Isroil lashkarini magʻlub qildilar. Jang maydonida toʻrt mingga yaqin Isroil sipohlari nobud boʻldi. 3 Lashkar qarorgohga qaytgach, Isroil oqsoqollari shunday dedilar:

— Nima uchun bugun Egamiz bizni Filistlarga mag‘lub qilib berdi? Egamizning Ahd sandig‘ini Shilo‘dan bu yerga olib kelaylik. Ahd sandig‘i bizning oramizda borsin, toki bizni g‘animlarimizning qo‘lidan qutqarsin.

4 Oqsoqollar ikki karub* orasida taxt qurgan Sarvari Olamning Ahd sandig‘ini
Shilo‘dan olib kelish uchun odamlarni yubordilar. Elaxning ikkala o‘g‘li — Xo‘fnax bilan
Finxaz ham Xudoning Ahd sandig‘ini jang bo‘layotgan joyga olib kelish uchun
yordamlashdilar. 5 Egamizning Ahd sandig‘ini qarorgohga olib kelishganda, hamma
Isroil xalqi shunday baland ovoz bilan baqirishdiki, hatto yer turgan joyidan qo‘zg‘alib
ketdi. 6 Filistlar shovqin–suronni eshitib:

— Ibroniylar qarorgohida nega bunchalik qattiq baqir–chaqir bo‘lyapti ekan? — deyishdi. Keyin Egamizning Sandig‘ini qarorgohga olib kelganlarini bilib, 7 qo‘rqib ketishdi:

— Xudolari qarorgohga kelibdi, endi sho‘rimiz quriydi! Bunaqasini hech qachon eshitmagandik! 8 Oh, sho‘rimiz qursin! Bunday qudratli xudolarning* qo‘lidan kim bizni xalos qiladi? Sahroda Misrliklarni har baloga giriftor qilgan xudolar o‘shalar–ku! 9 Dadil bo‘ling, ey Filistlar! Mard bo‘linglar! Aks holda, ibroniylar sizlarga qanday bo‘ysungan bo‘lsalar, sizlar ham ularga shunday bo‘ysunib qolasizlar. Shuning uchun mardona kurashib, jang qilinglar!

10 Shundan so‘ng Filistlar qattiq hujum qilib, Isroil lashkarini mag‘lub etdilar. Isroil lashkarining bari uylariga qochib qoldi. Isroil lashkari shunchalik katta talafot ko‘rdiki, ular o‘ttiz ming piyoda sipohidan ayrildi. 11 Xudoning Sandig‘i ham qo‘ldan ketdi, Elaxning ikkala o‘g‘li — Xo‘fnax bilan Finxaz esa halok bo‘ldi.

Elaxning o‘limi

12 Benyaminlik bir odam jang maydonidan qochib, o‘sha kuniyoq Shilo‘ga* yetib keldi. U qayg‘udan kiyimlarini yirtgan, boshiga tuproq sochgan edi. 13 O‘sha odam Shilo‘ga yetib kelganda, Elax Xudoning Sandig‘iga biror narsa bo‘lishidan xavotirlanib, yo‘l yoqasida kursida kutib o‘tirgan edi. Haligi odam shaharga kirib, bo‘lib o‘tgan voqealarni aytib bergan edi, butun shahar ahli dod–faryod ko‘tardi. 14 Elax shovqin–suronni eshitib:

— Nimaga bunchalik shovqin? — deb so‘radi. O‘sha odam, bo‘lgan voqeadan Elaxni xabardor qilib qo‘yay deb, darrov uning yoniga keldi. 15 O‘sha paytda Elax to‘qson sakkiz yoshda bo‘lib, ko‘zlari xiralashgan, yaxshi ko‘ra olmasdi. 16 Haligi kishi Elaxga:

— Men jang maydonidan kelyapman, u yerdan bugun qochib keldim, — dedi.

— Nima bo‘ldi, o‘g‘lim? — deb so‘radi Elax. 17 Xabar keltirgan odam shunday dedi:

— Isroil lashkari Filistlarning oldiga tushib qochdi. Lashkar katta talafot ko‘rdi. Ikkala o‘g‘lingiz — Xo‘fnax bilan Finxaz ham halok bo‘ldi. Xudoning Sandig‘i esa qo‘ldan ketdi.

18 Elax hali ham darvoza yonidagi kursida o‘tirgan edi. Xabarchi, Xudoning Sandig‘ini Filistlar tortib oldi, deb aytishi bilan Elax kursidan orqasi bilan yiqildi. Keksaligi va semizligidan bo‘yni sinib, o‘sha zahoti jon berdi. U Isroilda qirq yil hakamlik qilgan edi.

Finxazning xotini vafot etadi

19 Elaxning kelini — Finxazning xotini homilador bo‘lib, yaqin orada ko‘zi yorishi kerak edi. “Xudoning Sandig‘i qo‘ldan ketdi, qaynatang va ering o‘ldi” degan xabarni eshitishi bilanoq uni to‘lg‘oq tutib qoldi. U yerga cho‘nqayib o‘tirib, tug‘ib qo‘ydi. 20 Doya

xotinlar unga oʻlimi oldidan:

— Qoʻrqma, oʻgʻil tugʻding, — dedilar. Lekin u e’tibor bermadi, biror soʻz ham aytmadi. 21 Xudoning Sandigʻi qoʻldan ketgani uchun, qaynatasi bilan eri oʻlgani uchun u:

— Isroildan ulugʻvorlik ketdi, — deya chaqaloqqa Ixabod* deb ism qoʻydi. 22 Keyin u yana:

— Xudoning Sandigʻi qoʻldan ketdi, Isroildan ulugʻvorlik ketdi, — dedi.

5–BOB

Ahd sandigʻi Ashdod va Exronga suriladi

1 Filistlar Xudoning Sandigʻini qoʻlga kiritganlaridan keyin, uni Evanzordan Ashdod shahriga* olib ketishdi. 2 Uni Filistlarning xudosi Doʻgʻon uyiga olib borib, Doʻgʻon haykali yoniga joylashtirishdi. 3 Ashdodliklar ertasiga saharda turib qarashsa, Doʻgʻon Egamizning Sandigʻi oldida yuzi bilan yerga agʻdarilib yotgan ekan. Shunda Doʻgʻonni koʻtarib, joyiga turgʻizib qoʻyishdi.

4 Ertasiga yana saharda turib qarashsa, Doʻgʻon Egamizning Sandigʻi oldida yuzi bilan yerga agʻnab yotgan ekan. Bu safar Doʻgʻonning boshi bilan ikkala qoʻli sinib, ostonada yotgan, faqat gavdasi butun qolgan ekan, xolos. 5 Shuning uchun Doʻgʻon ruhoniylari va Doʻgʻon uyiga kelib sajda qiluvchilarning birortasi bugungacha* Ashdoddagi bu joyning ostonasini bosmaydi, ular ostonani hatlab, ichkariga kirishadi.

6 Egamiz Ashdod aholisini va uning atrofidagi qishloqlar aholisini qattiq jazoladi. Ularni chipqonga giriftor qilib, katta kulfat keltirdi. 7 Ashdodliklar boʻlib turgan voqealarni koʻrgach:

— Isroil Xudosining Sandigʻi endi biz bilan qolmasin, chunki u oʻzimizga ham, xudoyimiz Doʻgʻonga ham ogʻir kulfat keltirdi, — deyishdi. 8 Soʻngra xabarchilar joʻnatib, hamma Filist beklarini chaqirtirib kelishdi:

— Isroil Xudosining Sandigʻini nima qilamiz? — deb soʻrashdi Ashdodliklar.

— Isroil Xudosining Sandigʻi Gatga yuborilsin, — deyishdi Filist beklari.

Shunday qilib, Isroil Xudosining Sandigʻi Gat shahriga joʻnatib yuborildi. 9 Ammo Sandiq u yerga keltirilgandan keyin, Egamiz oʻsha shaharga ham balo–qazo keltirdi. Shaharni qattiq vahima bosdi. Egamiz butun shahar aholisini, kattayu kichikni yana chipqonga mubtalo qildi. 10 Shundan keyin Isroil Xudosining Sandigʻini Exron shahriga joʻnatishdi.

Xudoning Sandigʻi Exronga kirar–kirmas, Exronliklar:

— Oʻzimizni va xalqimizni qirib tashlagani Isroil Xudosining Sandigʻini bizga olib kelishdi! — deb shovqin soldilar. 11 Xabarchilar joʻnatib, Filistlarning hamma beklarini toʻplab, shunday dedilar:

— Isroil Xudosining Sandigʻini kelgan joyiga qaytarib yuboringlar, tagʻin oʻzimiz ham, xalqimiz ham qirilib ketmaylik.

Shaharning har tarafida oʻlim vahimasi hukm surardi. Xudo ularga ogʻir jazo yuborgan edi. 12 Omon qolganlarning hammasiga esa chipqon chiqdi. Shahar ahlining ohu figʻoni koʻklarga oʻrladi.

6–BOB

Ahd sandig‘i Isroilga qaytib keladi

1 Egamizning Sandig‘i Filistlar hududida yetti oy qolib ketdi. 2 Filistlar o‘zlarining
ruhoniylari va folbinlarini chaqirib:
— Isroil Xudosining Sandig‘ini nima qilamiz, uni o‘z yeriga qanday qaytaramiz?
Bizga o‘rgating, — deyishdi. 3 Ruhoniylar bilan folbinlar shunday javob berdilar:
— Sandiqni orqaga qaytaradigan bo‘lsangizlar, bo‘sh qaytarmanglar. Isroil xalqining
Xudosiga albatta aybingizni yuvadigan nazr atanglar. O‘shanda shifo topib, Xudo nima
uchun sizlarni jazolayotganini bilib olasizlar.
4 — Aybimizni yuvish uchun Unga nimani nazr qilamiz? — deb so‘rashdi Filistlar.
Ruhoniylar va folbinlar shunday javob berishdi:
— Aybingizni yuvadigan nazr, Filist beklarining miqdoricha — oltindan qilingan
beshta chipqon va beshta sichqon bo‘lsin. Chunki balo–qazo sizlarning hammangiz
uchun ham, beklaringiz uchun ham baravardir. 5 Shuning uchun chipqonlarning va
mamlakatga qirg‘in keltirgan sichqonlarning haykalchalarini yasang, shu tariqa Isroil
xalqining Xudosini sharaflang. Balki ana shunda o‘zlaringizga, xudolaringizga va
yurtingizga kelgan balo–qazoni U yengillatar. 6 Nimaga Misrliklarga va fir’avnga o‘xshab
o‘jarlik qilasizlar? Esingizda yo‘qmi, Isroil xalqining Xudosi Misrliklarni rosa ezgandan
keyingina, ular Isroil xalqini o‘z yo‘liga qo‘yib yubordilar–ku! 7 Endi bitta yangi arava
bilan hali hech bo‘yinturuq solinmagan ikkita sog‘in sigir hozirlanglar. Sigirlarni aravaga
qo‘shinglar, buzoqlarini esa sigirlardan ayirib, og‘ilxonaga olib boringlar. 8 Sandiqni
aravaga yuklanglar, ayblaringizni yuvadigan nazrlarni — Isroil xalqining Xudosiga atab
yasalgan oltin haykalchalarni bir qutiga joylashtiringlar. O‘sha qutini Sandiqning yoniga
qo‘yinglar. Keyin aravani qo‘yib yuboringlar, o‘z yo‘liga ketsin. 9 Aravaning orqasidan
kuzatib boringlar. Agar sigirlar bizning yurtimiz chegarasidan o‘tib, Bayt–Shamash
shahriga* boradigan yo‘ldan ketsa, demak, boshimizga bunday katta kulfatni solgan
Isroil xalqining Xudosidir. Agarda shunday bo‘lmasa, bu kulfat bizga Undan kelmaganini,
balki bir tasodif bo‘lganini bilib olamiz.
10 Odamlar aytilganday qilishdi. Ikki sog‘in sigir keltirib, aravaga qo‘shishdi,
buzoqlarni esa og‘ilxonaga qamab qo‘yishdi. 11 Egamizning Sandig‘ini, shuningdek,
ichiga oltin sichqonlar va chipqonlarning haykalchalari solingan qutini aravaga
yuklashdi. 12 Sigirlar to‘ppa–to‘g‘ri Bayt–Shamash yo‘lidan ketdi. O‘ngga ham, chapga
ham burilmay, bo‘kirganicha, katta yo‘l bo‘ylab ilgarilab ketaverdi. Filist beklari aravani
Bayt–Shamash chegarasigacha kuzatib borishdi.
13 O‘sha paytda Bayt–Shamash aholisi vodiyda bug‘doy o‘rayotgan edi*. Ular
Sandiqni ko‘rib, sevinib ketishdi. 14-15 Arava Bayt–Shamashlik Yoshuaning dalasiga yetib
kelib, to‘xtab qoldi. O‘sha yerda katta bir tosh bor edi. Levilar Egamizning Sandig‘ini va
yonidagi oltin haykalchalar joylangan qutini aravadan tushirib, o‘sha katta toshning
ustiga qo‘yishdi. Bayt–Shamash aholisi aravaning yog‘ochlarini o‘tin qilib yordi.
Sigirlarni esa Egamizga kuydiriladigan qurbonlik qilishdi. O‘sha kuni Bayt–Shamash
aholisi Egamizga kuydiriladigan qurbonliklar va boshqa qurbonliklar keltirdi.
16 Beshala Filist beklari bo‘lib o‘tgan voqealarni o‘z ko‘zlari bilan ko‘rib, shu kuni
Exronga qaytib ketdilar. 17 Filistlar ayblari uchun Egamizga nazr qilib beshta oltin
chipqon haykalchasini jo‘natgan edilar. Hadyalar Ashdod, G‘azo, Ashqalon, Gat va Exron

shaharlarining hokimlaridan edi. 18 Beshta oltin sichqon beshta hukmdor boshqargan
Filistlar shaharlarining va ularning atrofidagi qishloqlarning ramzi edi. Bayt–
Shamashlik Yoshuaning dalasidagi Egamizning Sandig‘i qo‘yilgan katta tosh shu
kungacha* bunga guvoh bo‘lib turibdi.

Ahd sandig‘i Xirat–Yo‘rimda

19 Bayt–Shamashlik yetmish kishi* Egamizning Sandig‘i ichiga qaragan edi, Xudo
ularni yo‘q qildi. Egamiz xalqning boshiga og‘ir kulfat keltirgani uchun, Bayt–
Shamashliklar motam tutdilar.

220 Bayt–Shamash aholisi shunday dedi:

— Egamiz oldida — bu Muqaddas Xudo oldida kim bardosh berishga qodir ekan?!
Uning Sandig‘ini o‘zimizning oldimizdan qayoqqa jo‘natsak ekan?

21 Nihoyat, ular Xirat–Yo‘rim* aholisiga xabarchi jo‘natib: “Filistlar Egamizning
Sandig‘ini qaytarishdi, kelinglar, uni o‘z shahringizga olib ketinglar” degan gapni
yetkazishdi.

7–BOB

1 Shundan keyin Xirat–Yo‘rim aholisi borib, Egamizning Sandig‘ini oldi. Uni
Abunadavning tepalikdagi uyiga olib kelishdi. Egamizning Sandig‘ini avaylab saqlasin
deb, Abunadavning o‘g‘li Elazarni poklab, shu vazifaga tayinlashdi.

Shomuil Isroilga yo‘lboshchilik qiladi

2 Sandiq uzoq vaqt — yigirma yilcha Xirat–Yo‘rimda qolib ketdi. Bu orada butun
Isroil xalqi Egamizga talpindi.

3 Shomuil jamiki Isroil xalqiga dedi:

— Agar chin dildan Egamizga qaytmoqchi bo‘lsangiz, hamma begona xudolarni va
Ashtaret tasvirlarini orangizdan yo‘qoting. Ko‘nglingizni Egamizga berib, yolg‘iz Unga
xizmat qiling. Ana shunda Egamiz sizlarni Filistlarning qo‘lidan qutqaradi.

4 Isroil xalqi Baal va Ashtaret tasvirlarini yo‘q qilib, faqat Egamizga xizmat qila
boshlashdi.

5 O‘shanda Shomuil:

— Butun Isroil xalqi Mispaxda* to‘plansin, men u yerda Isroil xalqi uchun Egamizga
iltijo qilaman, — dedi.

6 Mispaxda to‘plangan Isroil xalqi quduqdan suv tortib, Egamizga nazr qilib to‘kishdi.
“Egamiz oldida gunoh qildik”, deb o‘sha kuni ro‘za tutishdi. Shomuil Mispaxda Isroil
xalqiga hakamlik qila boshladi.

7 Filistlar Isroil xalqining Mispaxda to‘planganini eshitib qolishdi. Filist beklari, Isroil
xalqi bilan urishamiz, deb otlanishdi. Isroil xalqi buni eshitib, Filistlardan qo‘rqib
ketishdi. 8 Ular Shomuilga:

— Biz uchun Egamiz Xudoga tinimsiz iltijo qiling, toki U bizni Filistlarning qo‘lidan
qutqarsin, — deyishdi. 9 Shu boisdan Shomuil bitta emadigan qo‘zichoq olib, Egamizga
kuydiriladigan qurbonlik qildi. So‘ng Isroil xalqi uchun Egamizga nolayu faryod bilan
iltijo qildi. Egamiz uning iltijosini eshitdi.

10 Shomuil kuydiriladigan qurbonlikni ado etayotgan edi, Filistlar Isroil lashkariga
hujum qilmoqchi bo‘lib yaqin keldilar. Ammo o‘sha zahoti Egamiz vahimali ovoz
chiqarib, Filistlarni shunday sarosimaga soldiki, oqibatda ular Isroil lashkariga mag‘lub

bo‘ldi. 11 Isroil lashkari Mispaxdan chiqib, Filistlarni Bayt–Kor degan yerning etagigacha
quvib borib o‘ldirdilar.
12 Shomuil bir toshni olib, Mispax bilan Yashono orasiga o‘rnatdi. “Egamiz bizga yo‘l
bo‘yi yordam berdi”, deya toshga Evanzor* deb nom berdi. 13 Mag‘lub bo‘lgan Filistlar
Isroil hududiga qaytib hujum qilishmadi. Shomuil hayotligida Isroil xalqi Filistlarga
hujum qilganda, Egamiz madad berib turdi. 14 Exrondan Gatga qadar Filistlar qo‘lga
kiritgan shaharlarning hammasini Isroil xalqi yana qaytarib oldi. Shunday qilib, Isroil
xalqining hamma yerlari Filistlardan ozod bo‘ldi. Isroil xalqi bilan Amor xalqlari*
orasida sulh tuzildi.
15 Shomuil umr bo‘yi Isroilga hakamlik qildi. 16 U har yili Baytil, Gilgal, Mispaxni
aylanar, bu shaharlarda turib, Isroilni boshqarardi. 17 Keyin Rama shahridagi uyiga
qaytar va o‘sha yerda turib Isroilga hakamlik qilardi. Shomuil Ramada Egamizga atab
bir qurbongoh qurdirdi.

8–BOB

Isroil xalqi bir shoh talab qiladi

1 Shomuil keksaygach, o‘g‘illarini Isroilga hakam qilib tayinlagan edi. 2 To‘ng‘ich
o‘g‘lining oti Yo‘el, ikkinchi o‘g‘lining oti Abiyo edi. Bersheba shahrida* shu o‘g‘illari
hakam edilar. 3 Ammo o‘g‘illari Shomuilning yo‘lidan yurishmadi. Ular tama qilar, pora
olar, bir yoqlama hukm chiqarardilar.
4 Bir kuni Isroilning hamma oqsoqollari to‘planishib, Ramaga — Shomuilning
huzuriga borishdi 5 va unga shunday deyishdi:
— Mana, siz keksaydingiz, o‘g‘illaringiz esa sizning yo‘lingizdan yurishmayapti. Endi
boshqa xalqlarda bo‘lganiday, ustimizdan hukmronlik qiladigan bir shoh tayinlang.
6 Isroil oqsoqollarining “Ustimizdan hukmronlik qiladigan bir shoh tayinlang” degan
gaplari Shomuilga yoqmadi. Shuning uchun u Egamizga ibodat qilgan edi, 7 Egamiz
Shomuilga shunday javob berdi:
— Xalq senga nima aytsa, hamma gapiga quloq sol. Ular seni rad etishmadi,
o‘zlarining shohi sifatida Meni rad etishdi. 8 Ularni Misrdan olib chiqqan kunimdan
buyon Menga nima qilgan bo‘lsalar, senga ham shunday qilishayotir: ular Meni tark etib,
boshqa xudolarga sajda qilishdi. 9 Endi ularning gapiga quloq sol. Faqat ularni jiddiy
ogohlantirib qo‘y, o‘zlari ustidan hukmronlik qiladigan shohning huquqi va
muomalasini ochiqchasiga ayt.
10 O‘zlari uchun shoh talab qilayotgan xalqqa Shomuil Egamizning hamma
aytganlarini yetkazdi:
11 — Sizlarga hukmronlik qiladigan shohning huquqi va muomalasi quyidagicha
bo‘ladi: shoh o‘g‘illaringizni majburlab jang aravalarida va suvori lashkari safida xizmat
qilishga oladi. Ba’zilarini o‘ziga qo‘riqchi qilib tayinlaydi, ular shohning jang aravalari
oldida yugurishadi. 12 Shoh ba’zilarini mingboshi, ba’zilarini ellikboshi etib tayinlaydi.
Qay birini shoh o‘z dalasini ekish–o‘rishga, yana boshqasini esa jang qurollarini va jang
aravalarining asbob–uskunalarini yasashga majbur etadi. 13 Qizlaringizni pardozchi,
oshpaz, novvoy qilib oladi. 14 Eng yaxshi dalalaringizni, uzumzorlaringizni,
zaytunzorlaringizni olib, o‘zining a’yonlariga beradi. 15 Doningizning, uzumlaringizning
o‘ndan birini olib, saroy amaldorlari bilan boshqa a’yonlariga taqsimlab beradi. 16 Qul va

choʻrilaringizni, eng sara hoʻkizlaringizni*, eng sara eshaklaringizni olib, oʻzining ishi uchun foydalanadi. 17 Qoʻy va echki suruvlaringizning ham oʻndan birini tortib oladi. Oʻzlaringiz ham unga qul boʻlib qolasizlar. 18 Vaqti kelib, oʻzlaringiz istagan shoh dastidan faryod qilasizlar. Lekin oʻsha paytda Egamiz sizlarga javob bermaydi.

19 Baribir xalq Shomuilning gapini eshitishni istamadi:

— Yoʻq, ustimizdan bir shoh boʻlsin, 20 oʻshanda biz ham hamma xalqlar singari boʻlamiz. Shohimiz bizga hukmronlik qilsin, oldimizda borib, urushlarimizda bosh boʻlsin, — deyishdi.

21 Shomuil xalqning hamma gapini tingladi, soʻng ularning gaplarini Egamizga aytdi. 22 Egamiz Shomuilga:

— Ularning gapiga quloq sol, ustilaridan shoh tayinla, — deb amr berdi. Shomuil Isroil xalqiga:

— Har kim oʻz shahriga qaytsin, — dedi.

9–BOB

Shomuil Shoulni qarshi oladi

1 Benyamin qabilasida Kish degan bir odam bor edi. Kish — Abilning oʻgʻli, Abil — Zarorning oʻgʻli edi. Zaror — Baxuratning, Baxurat — Ofiyoxning oʻgʻli edi. Benyamin qabilasidan boʻlgan Kish ancha obroʻli odam edi. 2 Uning Shoul degan yosh, chiroyli bir oʻgʻli bor edi. Isroil xalqi orasida Shouldan chiroyli odam yoʻq edi. Har qanday odamning boʻyi uning yelkasidan kelardi.

3 Bir kuni Kishning eshaklari yoʻqolib qoldi. Kish oʻgʻli Shoulga:

— Xizmatkorlardan birini yoningga olgin–da, borib, eshaklarni topib kel, — dedi.

4 Shoul Efrayim qirlarini, soʻng Sholisho yerlarini aylanib chiqdi. Ammo eshaklarni topa olmadi. Keyin Shalim yerlariga oʻtdi, eshaklar u yerda ham yoʻq ekan. Soʻngra Benyamin hududini kezib chiqdi, eshaklarni u yerdan ham topa olmadi.

5 Zuf degan joyga borishgach, Shoul yonidagi xizmatkoriga:

— Boʻldi endi, orqaga qaytamiz, boʻlmasa, eshaklar qolib, otam bizdan xavotirlanadi, — dedi.

6 — Endi bunday qilsak, — dedi xizmatkori, — shu shaharda bir paygʻambar bor, u obroʻli odam. Hamma aytganlari vojib boʻladi. Oʻsha odamnikiga borsak, balki boradigan yoʻlimizni u bizga koʻrsatar.

7 — Agar borsak, unga nima olib boramiz? — deb soʻradi Shoul. — Toʻrvalarimizdagi non tugadi. Paygʻambarga olib boradigan biror hadyamiz yoʻq. Nimamiz qoldi?

8 — Mana, menda bir kumush tanga* bor, — dedi xizmatkor. — Buni paygʻambarga beraman, u bizga boradigan yoʻlimizni koʻrsatadi.

9 (Qadimda Isroilda kimdir Xudoning xohish–irodasini bilmoqchi boʻlsa, “Qani, valiyga boramiz”, derdi. Bugungi paygʻambar oʻsha vaqtda valiy deyilardi.)

10 Shoul xizmatkoriga:

— Ma’qul, qani, ketdik, — dedi. Shunday qilib, ular paygʻambar yashaydigan shaharga joʻnadilar. 11 Shahar tepalikda joylashgan edi. Ular shaharga boradigan qiya yoʻldan ketayotganlarida, quduqdan suv olishga kelgan qizlarga duch kelishdi. Ular qizlardan:

— Valiy shu yerdami? — deb soʻrashdi. 12 Qizlar javob berishdi:

— Ha, ana oldingizda! Faqat tezroq boringlar, shahrimizga bugun keldilar. Bugun
tepalikdagi sajdagohda xalq qurbonlik keltiradi. 13 Shaharga kirishingiz bilanoq, uni
topasizlar. U sajdagohga taom yeyishga kelmoqda. Valiy kelib, qurbonlikni tabarruk
qilmaguncha, xalq taom yemaydi. U kelgandan keyingina taklif qilinganlar taom yeydi.
Hozir borsangiz, uni darrov topasizlar.
14 Shoul bilan xizmatkori shaharga kelishdi. Shaharga kirganlarida, sajdagohga
chiqishga taraddud koʻrayotgan Shomuil ular tomonga kelayotgan ekan.
15 Shoul kelmasdan bir kun oldin, Egamiz Shomuilga shuni ayon qilgan edi: 16 “Ertaga
shu vaqtda sening oldingga Benyamin yurtidan bittasini yuboraman. Uning boshiga moy
surtib tanla. U xalqim Isroilning hukmdori boʻlsin. Xalqimni Filistlar qoʻlidan u
qutqaradi. Xalqimning ahvoliga nazar soldim, ularning ohu figʻoni Menga yetib keldi.”
17 Shomuil Shoulni koʻrgach, Egamiz unga: “Ana Men senga aytgan odam, Mening
xalqimga u rahnamolik qiladi”, — dedi. 18 Shoul shahar darvozasi oldida Shomuilga
yaqinlashib soʻradi:
— Marhamat qilib ayting–chi, valiyning uyi qayerda?
19 — Valiy menman, — dedi Shomuil. — Mendan oldin sajdagohga chiq. Bugun men
bilan birga taom yeysizlar. Ertaga ertalab dilingdagi hamma narsani senga aytib, keyin
oʻzim kuzatib qoʻyaman. 20 Isroil xalqining umidi sendan va sening xonadoningdan
ekanini oʻzing bilishing zarur. Uch kun oldin yoʻqolgan eshaklaring uchun qaygʻurma.
Ular topildi.
21 — Men Isroil qabilasining eng kichigi boʻlgan Benyamin qabilasidanman–ku! Men
mansub boʻlgan urugʻ Benyamin qabilasining hamma urugʻidan eng kichigi boʻlsa,
menga nima uchun bunday gaplarni aytyapsiz? — dedi Shoul.
22 Shomuil Shoul bilan xizmatkorini oʻsha yerdagi xonaga olib bordi. Chaqirilganlar
taxminan oʻttiztacha edi. Eng toʻriga Shoul bilan xizmatkorini oʻtqazdi. 23 Keyin
oshpazga:
— Men senga, bir chetga olib qoʻy, deb ulush bergan edim–ku, oʻsha ulushni keltir, —
dedi. 24 Oshpaz oʻng son goʻshtini olib kelib, Shoulning oldiga qoʻydi.
— Mana, sen uchun ajratib qoʻyilgan ulush, marhamat, yegin! — dedi Shomuil. — Bu
ulushni belgilangan kunda oʻzim chaqirgan xalqim bilan birga yeysan, deb senga saqlab
qoʻygan edim.
Oʻsha kuni Shoul Shomuil bilan taom yedi. 25 Soʻngra ular sajdagohdan shaharga
tushishdi. Shomuil uyining tomida Shoul bilan suhbatlashdi.

Shomuil Shoulni hukmdor etib tayinlaydi

26 Sahar payti Shomuil tom ustida yotgan* Shoulni chaqirib:
— Boʻla qol! Seni kuzatib qoʻyaman, — dedi.
Shoul oʻrnidan turib, Shomuil bilan birga tashqariga chiqdi. 27 Shahar chekkasiga
yaqinlashganlarida, Shomuil Shoulga dedi:
— Xizmatkoringga ayt, u bizdan oldinroq yursin. Sen orqaroqda qol, senga Xudoning
kalomini aytaman.

10–BOB

1 Soʻngra Shomuil moy idishini olib, Shoulning boshiga moy surtdi. Keyin Shoulni
oʻpib, shunday dedi:

— Mana, Egamiz senga moy surtib, O‘z xalqiga hukmdor etib tanladi. 2 Bugun mening
oldimdan ketganingdan keyin Benyamin hududida, Zilzaxdagi Rohilaning maqbarasi
yonida ikki kishiga duch kelasan. Ular senga: “Izlab ketgan eshaklaring topildi, otang
endi eshaklarni o‘ylamay, balki, o‘g‘limga nima bo‘ldi ekan, deb sendan xavotirlanib
o‘tiribdi”, deb aytishadi. 3 U yerdan yana yo‘lingda davom etib, Tovurdagi muqaddas
daraxt oldidan chiqasan. U yerda uchta odamga duch kelasan. Ularning biri uchta
uloqcha, biri uchta gardish non, yana boshqasi bir mesh sharob bilan Xudoning huzuriga
— Baytilga yo‘l olgan bo‘ladi. 4 Ular senga omonlik tilab, ikkita gardish non berishadi.
Sen nonlarni ol. 5 Keyin Filistlar qo‘nolg‘asi joylashgan, Xudoning tepaligi deb atalgan
Givoga* borasan. Shaharga kirganingda, payg‘ambarlar guruhiga duch kelasan. Ular
jo‘shib zikr tushib, sajdagohdan tushib kelayotgan bo‘ladilar. Ularning oldilarida arfa,
childirma, nay va lira chalib kelayotgan odamlar bo‘ladi. 6 Egamiz Ruhi seni ham qamrab
oladi. Ular bilan birga sen ham jo‘shib zikr tushasan va butunlay boshqa odamga
aylanasan. 7 Bu alomatlar senda namoyon bo‘lganda, o‘zingga ma’qul bo‘lganini qil. Xudo
sen bilan. 8 Mendan oldin sen Gilgalga bor. Men ham kuydiriladigan qurbonliklar va
tinchlik qurbonliklarini nazr qilgani huzuringga boraman. Meni yetti kun kut, yoningga
borganimdan keyin nima qilishingni aytaman.

9 Shoul endi Shomuilning yonidan ketish uchun chog‘langan ham ediki, Xudo uning
yuragini o‘zgartirdi. O‘sha kuni Shomuil aytgan hamma alomatlar bajo bo‘ldi. 10 Shoul
Givoga kelganda, uni payg‘ambarlar guruhi qarshi oldi. Xudoning Ruhi uni qamrab oldi,
Shoul ular bilan birga jo‘shib zikr tusha boshladi. 11 Shoulning do‘stlari buni ko‘rib,
hayratga tushdilar:

— Nima? Nahotki Shoul ham payg‘ambar bo‘lsa?! Kishning o‘g‘li qanday qilib
payg‘ambar bo‘lib qolibdi?

12 Qo‘shnilaridan biri e’tiroz bildirdi:

— Otasi kimligining ahamiyati yo‘q. Har kim ham payg‘ambar bo‘lishi mumkin*.

Shu sababdan ham “Nahotki Shoul ham payg‘ambar bo‘lsa?!” degan gap aslida
o‘shandan qolgan.

13 Zikr tushish to‘xtagach, Shoul sajdagohga chiqdi.

14 Amakisi Shoul bilan xizmatkoridan:

— Qayerlarda qolib ketdingizlar? — deb so‘radi.

— Eshaklarni qidirdik, ularni topa olmay, Shomuilning oldiga bordik, — deb javob
berdi Shoul.

15 — Shomuil sizlarga nimalar dedi, menga ham ayt–chi, — dedi amakisi.

16 — Eshaklarning topilganini bizga to‘ppa–to‘g‘ri aytib berdi, — dedi Shoul.
Shomuilning shohlikka aloqador so‘zlarini esa amakisiga aytmadi.

Shoul shoh deb e’lon qilinadi

17 Shomuil Isroil xalqini Mispaxga*, Egamizning huzuriga chaqirib, 18 shunday dedi:

— Isroil xalqining Xudosi — Egamiz aytmoqda: “Isroil xalqini Misrdan Men olib
chiqqanman. Misrliklarning va sizlarga zulm qilgan hamma shohliklarning qo‘lidan
sizlarni qutqardim. 19 Ammo bugun butun mashaqqat va zahmatlaringizdan sizlarni
qutqaradigan Men, Xudoyingizni rad qildingiz hamda: «Bizga ustimizdan shoh
tayinlang», dedingiz. Endi Men, Egangizning huzurida qabila va urug‘larga bo‘linib
tiziling.”

20 Shomuil Isroil xalqining hamma qabilalarini birin–ketin oʻz huzuriga chaqirdi.
Qur'a tashlab*, ulardan Benyamin qabilasini tanlab oldi. 21 Keyin Benyamin qabilasini
urugʻlari boʻyicha oldiga chaqirdi. Qur'a tashlab, Matri urugʻini tanlab oldi. Yana qur'a
tashlab, Matri urugʻidan Kishning oʻgʻli Shoulni tanlab oldi. Isroil xalqi uni axtarib topa
olmadi. 22 Ular Egamizdan:

— Oʻsha odam keldimi oʻzi? — deb soʻrashdi.

— U shu yerda, anjomlarning orasida yashirinib yuribdi, — degan javob keldi
Egamizdan.

23 Odamlar yugurib borib, Shoulni olib kelishdi. Shoul xalqning orasida tikka turgan
edi, hamma uning yelkasidan kelar ekan.

24 Shomuil butun xaloyiqqa qarata:

— Egamiz tanlagan odamni koʻryapsizmi, butun xalq orasida unga teng keladigani
topilmaydi, — dedi. Shunda xalq:

— Yashasin shoh! — deb hayqirdi.

25 Shomuil shohlikning qonun–qoidalarini xalqqa aytib berdi. (Keyinchalik Shomuil
bu qonun–qoidalarni kitob holiga keltirib, Egamizning uyiga* qoʻydi.) Soʻng hamma
odamni uy–uylariga joʻnatib yubordi. 26 Shoul ham Givoga — oʻz uyiga ketdi. Xudo
ruhlantirgan bir necha kishi unga hamroh boʻldi. 27 Ammo ba'zi yaramas odamlar: "U
bizni qutqara olarmidi?!" deb Shoulni nazarlariga ilmadi, shu sababdan unga in'omlar
tortiq qilishmadi. Shoul esa bilib bilmaslikka olib qoʻya qoldi.

11–BOB

Shoul Ommon xalqini yengadi

1 Ommon* shohi Naxosh Giladdagi Yobosh shahriga* kelib, u yerni qamal qildi.
Hamma Yoboshliklar Naxoshga:

— Biz sen bilan sulh tuzib, senga itoat etamiz, — deyishdi. 2 Ommon shohi Naxosh:

— Faqat bir shart bilan sulh tuzaman, — dedi. — Har biringizning oʻng koʻzingizni
oʻyib olaman–da, butun Isroil xalqini badnom qilaman.

3 Yobosh shahrining oqsoqollari Naxoshga shunday deyishdi:

— Bizga yetti kun muhlat ber, Isroilning hamma hududiga xabarchilar joʻnataylik.
Agar bizga najot beradigan kimsa chiqmasa, senga taslim boʻlamiz.

4 Xabarchilar Shoul yashaydigan Givo shahriga kelib, boʻlayotgan voqealarni xalqqa
bildirishdi. Hammasi yigʻi–sigʻi qilib, dod–faryod soldi. 5 Xuddi shu payt Shoul
hoʻkizlarini oldiga solib daladan qaytayotgan edi. Shoul:

— Odamlarga nima boʻldi? Nega bunchalik yigʻlaydi? — deb soʻradi.

Yoboshliklarning joʻnatgan xabarini unga aytib berishdi. 6 Shoul bu gaplarni eshitgan
zahoti, Xudoning Ruhi uni qamrab oldi. Shoul qattiq gʻazablandi. 7 Bir juft hoʻkizni soʻyib,
nimtaladi. Xabarchilar orqali Isroilning hamma tomoniga oʻsha nimtalangan boʻlaklarni
joʻnatib, shunday dedi: "Kimki Shoul bilan Shomuilning orqasidan ergashmasa, oʻsha
odamning hoʻkizlari ham xuddi shu ahvolga tushadi."

Odamlar Egamizdan qoʻrqqanidan zir titrab, bir yoqadan bosh chiqarib yoʻlga tushdi.
8 Shoul ularni Bazax shahrida* yigʻdi. Isroil urugʻlaridan 300.000, Yahudo urugʻidan esa
30.000 kishi bor edi. 9 U yerga kelgan Yoboshlik xabarchilarga shunday deyishdi:

— Giladdagi Yobosh aholisiga, ertaga peshingacha najot topasizlar, deb aytinglar.

Xabarchilar borib, bu gapni yetkazishdi. Yoboshliklar quvonib ketishdi. 10 Naxoshga esa:

— Ertaga sizga taslim boʻlamiz, bizga nimani lozim koʻrsangiz, shuni qilavering, — deyishdi.

11 Ertasi kuni Shoul odamlarni uch qismga boʻldi. Ular tong payti Ommon lashkarining qarorgohiga bostirib kirishdi. Kunning jazirama issigʻi boshlanguncha, ularni magʻlub qilib boʻlishdi. Omon qolganlari shunday tirqirab qochdiki, hatto biron joyda ikki kishi toʻplanganini uchratib boʻlmasdi.

12 Isroil lashkari Shomuilning oldiga borib:

— “Bizga shohlik qilish Shoulga tushib qolibdimi?” deganlar kimlar edi? Olib keling ularni, oʻldiramiz! — deb qattiq talab qilishdi. 13 Shoul esa:

— Bugun biron kimsa oʻldirilmaydi, chunki Egamiz bugun Isroilga najot berdi, — dedi.

14 — Mayli, Gilgalga boramiz, oʻsha yerda shohlikni yangidan tiklaymiz, — dedi Shomuil xalqqa.

15 Shunday qilib, butun xalq Gilgalga bordi va Egamiz huzurida Shoulning shohligini tasdiqladi. Oʻsha yerda — Egamizning huzurida tinchlik qurbonliklari keltirishdi. Shoul va butun Isroil xalqi rosa xursandchilik qilishdi.

12–BOB

Shomuilning ayrilish nutqi

1 Shundan keyin Shomuil butun Isroil xalqiga dedi:

— Menga nima gapirgan boʻlsangiz, hammasiga quloq soldim. Sizlarning ustingizdan bir shoh tayinladim. 2 Endi u sizlarga rahnamolik qiladi. Men esa keksaydim, sochim oqardi. Mana, oʻgʻillarim ham sizlar bilan birga. Yoshligimdan buyon shu kungacha sizlarga yoʻlboshchilik qildim. 3 Qani, aytinglar–chi, qaysi biringizning hoʻkizingizni oldim? Kimning eshagini tortib oldim? Kimni tovladim? Kimga zulm qildim? Kimdan pora olib, uning ayblarini koʻrib–koʻrmaslikka oldim? Egamizning va U moy surtib tanlagan shohning oldida men haqimda guvohlik bering, sizlardan biror narsa olgan boʻlsam, qaytarib beray.

4 — Bizni tovlamadingiz, bizga zulm qilmadingiz, biror kimsaning qoʻlidan biron narsa olmadingiz, — dedi xalq.

5 — Mendan biror nuqson topmaganingizga bugun Egamiz hamda U moy surtib tanlagan shoh guvohdir, — dedi Shomuil.

— Ha, ular guvoh boʻlib turibdi, — dedi xalq. 6 Shomuil gapini davom ettirdi:

— Muso bilan Horunni tayin qilgan, ota–bobolaringizni Misr yurtidan olib chiqqan — Egamizdir. 7 Endi shu yerda turinglar, Egamizning sizlarga va ota–bobolaringizga najot berish uchun qilgan hamma ajoyibotlarining isbotini Uning huzurida sizlarga koʻrsataman. 8 Yoqub Misrga kelgandan keyin, ota–bobolaringiz Egamizga yolvordi, U esa Muso bilan Horunni yubordi. Ular ota–bobolaringizni Misrdan olib chiqib, bu yerga joylashtirdi. 9 Ammo ota–bobolaringiz oʻzlarining Egasi Xudoni unutishdi. Shuning uchun Egamiz ularni Xazor shohining lashkarboshisi Sisaroning, Filistlarning va Moʻab shohining qoʻliga topshirdi. Ular ota–bobolaringiz bilan urishishdi. 10 Ota–bobolaringiz Egamizga: “Gunoh ishlar qildik, Sendan yuz oʻgirib, Baal bilan Ashtaretga xizmat qildik,

endi bizni g‘animlarimizning qo‘lidan ozod et, Senga xizmat qilamiz”, deb yolvorishdi.
11 Egamiz esa Gido‘n*, Baraq*, Yiftox*, Shimsho‘n* singari hakamlarni* yubordi.
Bexavotir yashanglar deb, sizlarni bo‘ysundirgan g‘animlaringiz qo‘lidan ozod etdi.
12 So‘ngra Ammon shohi Naxosh sizlarga hujum qilmoqchi bo‘lganini ko‘rib, qo‘rqib
ketdingiz. O‘z Egangiz Xudo sizlarning shohingiz bo‘lsa ham, menga: “Yo‘q, bizni oddiy
shoh boshqarsin”, deb turib oldingiz. 13 Mana, tanlab, tilab olgan shohingiz! Ha, Egamiz
ustingizdan hukmronlik qiladigan bir shohni berdi. 14 Egamizdan qo‘rqib, Unga xizmat
qilinglar, Uning so‘zlariga quloq solib, amrlaridan bo‘yin tovlamanglar. Sizlarga
hukmronlik qiladigan shohingiz bilan birga Egangiz Xudoga ergashinglar. Agar shunday
qilsangizlar, hammasi yaxshi bo‘ladi. 15 Egamizning so‘zlariga itoat etmasdan, Uning
amrlariga qarshi chiqsangiz, Egamiz ota–bobolaringizni jazolaganiday, sizlarni ham
jazolaydi. 16 Endi turgan yeringizda turavering, ko‘z o‘ngingizda Egamizning ajoyibotini
ko‘ringlar. 17 Hozir bug‘doy o‘rimi payti, qurg‘oqchilik boshlandi. Men Egamizga iltijo
qilaman, U momaqaldiroq guldiratib, yomg‘ir yog‘diradi. Shunday qilib, sizlar bir shoh
so‘rash bilan Egamiz oldida qanchalik qabihlik qilganingizni yaxshilab tushunib olasiz.
18 Shomuil Egamizga iltijo qilgan edi, Egamiz o‘sha kuni momaqaldiroq gumburlatib,
yomg‘ir yog‘dirdi. Jamiki xalq Egamizdan ham, Shomuildan ham juda qo‘rqib ketdi.
19 Ular Shomuilga:
— Nobud bo‘lmaylik. Biz — qullaringiz uchun o‘z Egangiz Xudoga iltijo qiling, —
deyishdi. — Endi bildik, biz bir shoh so‘rab, butun gunohlarimiz ustiga yana gunoh
qilibmiz.
20 Shomuil xalqqa dedi:
— Sizlar bu qilmishlaringiz bilan qabihlik qildilaringiz, lekin endi qo‘rqmanglar,
Egamizdan yuz o‘girmasdan Unga ergashinglar. Unga butun qalbingiz bilan xizmat
qilinglar. 21 Biror kimsaga najot berolmaydigan yaroqsiz butlarning orqasidan
ergashmanglar, ular befoyda narsalar–ku, axir. 22 Egamiz sizlarni O‘zining xalqi qildi. U
O‘zi tanlagan xalqdan yuz o‘girmaydi. Aks holda, O‘zining ulug‘ ismini badnom qilgan
bo‘ladi. 23 Endi menga kelsak, albatta Egamizga sizlar uchun ibodat qilaman. Aks holda,
Unga qarshi gunoh qilgan bo‘laman. Bundan Xudo saqlasin! Sizlarga faqat to‘g‘ri va
yaxshi yo‘lni ko‘rsataman. 24 Faqat Egamizdan qo‘rqinglar, Unga butun qalbingiz bilan
ishonib xizmatda bo‘linglar. Qarang, U sizlar uchun qanday ajoyib ishlar qilgan!
25 Agarda qabihlik qilaversangizlar, Egamiz sizlarni ham, shohingizni ham yo‘q qiladi.

13–BOB

Filistlar bilan urush

1 Shoh Shoul o‘ttiz* yoshida taxtga o‘tirib, Isroilda qirq ikki yil shohlik qildi*. 2 U
Isroil lashkaridan uch mingta odam saralab olib, qolganlarini uylariga jo‘natib yubordi.
O‘sha uch mingtadan ikki mingtasini Mixmash va Baytil qirlariga joylashtirdi, mingtasini
esa Benyamin urug‘iga qarashli Givo shahriga — Yo‘natanning* ixtiyoriga yubordi.
3 Oradan ko‘p o‘tmay, Yo‘natan Filistlarning Gebo shahridagi* qo‘nolg‘asini mag‘lub
qildi. Bu xabar Filistlar orasida tezda tarqaldi. Shoul: “Ibroniylar bu hodisadan xabardor
bo‘lsin”, deb butun o‘lka bo‘ylab burg‘u chaldirdi. 4 Shunday qilib, Shoul Filistlar
qo‘nolg‘asini yengganini va Filistlar Isroil xalqidan nafratlanganini Isroil xalqining
hammasi bildi. So‘ng lashkar Gilgalda Shoulning atrofiga to‘plandi.

5 Filistlar ham Isroil lashkari bilan urishmoq uchun yig‘ilishdi. Uch mingta* jang
aravasi, olti mingta otliq sipoh va dengiz qirg‘og‘idagi qum singari son–sanoqsiz lashkar
yo‘lga chiqib, Bayt–Obun shahrining sharqidagi Mixmashga keldi. Ular o‘sha yerda
qarorgoh qurishdi. 6 Isroil lashkarining ahvoli og‘irlashib, qiynalib qoldi va ular
g‘orlarga, xandaqlarga, qoyalar orasiga, qabrlarga, sardobalarga yashirindilar.
7 Ibroniylarning ayrimlari esa Iordan daryosi sharqidagi Gad va Gilad yerlariga kechib
o‘tishdi.

Shoul u vaqtda hali ham Gilgalda edi. Unga ergashganlarning hammasi qo‘rqib
ketishdi. 8 Shomuil Shoulga: “Meni yetti kun kut”, deb aytgani uchun*, uni Gilgalda yetti
kun kutib turdi. Shomuil Gilgalga kelavermagach, lashkar endi Shoulning yonidan qocha
boshladi. 9 Shuning uchun Shoul:

— Kuydiriladigan qurbonlik bilan tinchlik qurbonliklarini menga olib kelinglar, —
deb buyurdi. Keyin u kuydiriladigan qurbonliklarni nazr qildi.

10 Shoul qurbonlikni kuydirib bo‘lgan ham ediki, Shomuil kelib qoldi. Shoul, unga
salom beray deb, peshvoz chiqdi.

11 — Nima qilib qo‘yding?! — dedi Shomuil.

— Odamlarim mening yonimdan qochib ketyapti, — dedi Shoul. — Siz esa
belgilangan kuni kelmadingiz. Buning ustiga, Filistlar Mixmashda to‘planib turishibdi.
Ularni ko‘rib, 12 endi Filistlar Gilgalga ustimga bostirib keladi, men esa hanuzgacha
Egamdan yordam so‘rab iltijo qilmadim, deb o‘yladim. Shundan keyin kuydiriladigan
qurbonlikni qilishga majbur bo‘ldim.

13 Shomuil Shoulga dedi:

— Nodonlarcha ish tutibsan, o‘z Egang Xudoning senga bergan amriga itoat
etmading. Bo‘lmasa, Egam Isroildagi shohlik taxtingni to abad mustahkam qilgan
bo‘lardi. 14 Endi sening shohliging uzoqqa bormaydi. Egam O‘z ko‘ngliga mos bittasini
topdi, uni O‘z xalqi ustidan hukmdor qilib tayinladi. Chunki sen Egamning amriga itoat
qilmading.

15 Shundan so‘ng Shomuil Gilgaldan chiqib, Benyamin urug‘iga qarashli Givo
shahriga jo‘nab ketdi. Shoul yonida qolgan odamlarni sanab chiqdi, hammasi bo‘lib
taxminan olti yuz kishi ekan. 16 Shoul, o‘g‘li Yo‘natan va ularning lashkari Benyamin
qabilasiga qarashli Geboda joylashdilar. Filistlar esa Mixmashda qarorgoh qurgan edilar.
17 Filistlarning ilg‘orlari* uch guruhga bo‘linib, Isroil qishloqlarini talash uchun
qarorgohdan chiqishdi. Guruhlardan biri Shuvol hududidagi O‘fra shahri tomonga,
18 ikkinchisi Bayt–Xo‘ron shahri tomonga, uchinchisi esa cho‘l tomonga — Zavo‘m
vodiysi ko‘rinib turgan chegara adirga yo‘l oldi.

19 Filistlar: “Ibroniylar qilich, nayza yasay olmasin”, deb butun Isroil yurtida birorta
ham temirchi qoldirmagan edilar. 20 Shuning uchun butun Isroil xalqi omoch tishlarini,
cho‘kichlarini, bolta va o‘roqlarini* o‘tkirlash uchun Filistlarning oldiga borar edi.
21 Omoch tishi bilan cho‘kichni o‘tkirlash bahosi ikki misqol kumush*, panshaxa, bolta va
temir uchli govronni* o‘tkirlash bahosi bir misqol kumush* edi. 22 Shu sababdan Shoul
bilan Yo‘natanning jangchilaridan birortasida qilich yoki nayza yo‘q edi, faqat Shoul va
uning o‘g‘lida bor edi, xolos.

23 Bu paytga kelib, Filistlar qo‘nolg‘asini Mixmash dovonida joylashtirgan edilar.

14–BOB

Yo‘natanning mardona ishi

1 O‘sha kuni Shoulning o‘g‘li Yo‘natan yoshgina qurolbardoriga:
— Yur, narigi tomondagi Filistlarning qo‘nolg‘asi turgan joyga o‘tamiz, — dedi. Ammo bu haqda otasiga hech narsa aytmadi. 2 Shoul Givo shahri yaqinidagi Migronda bir anor daraxti tagida o‘tirar, yonida olti yuztacha odamdan iborat lashkari bor edi. 3 Efod ko‘tarib yurgan ruhoniy Oxiyo ham o‘sha yerda edi. Oxiyoning otasi — Oxitob, Oxitobning akasi — Ixabod edi. Ixabod — Finxazning o‘g‘li, Finxaz esa Shilo‘da Egamizning ruhoniysi bo‘lib xizmat qilgan Elaxning o‘g‘li edi.

Odamlar Yo‘natanning ketganini sezmay qolgan edilar. 4 Yo‘natan Filistlar qo‘nolg‘asiga dovon orqali o‘tmoqchi bo‘ldi. Dovonning har ikki tomonida ikkita baland cho‘qqi bor edi. Birisi — Bozaz, boshqasi Sanex deb atalardi. 5 Cho‘qqilardan biri shimol tomonda bo‘lib, Mixmashga, ikkinchisi janubda bo‘lib, Givoga qaragan edi.

6 Yo‘natan yosh qurolbardoriga:
— Yur, o‘sha sunnatsizlarning qo‘nolg‘asi tomonga o‘taylik, Egamiz bizga yordam beradi, — dedi. — U ko‘pchilik bilan ham, ozchilik bilan ham g‘alabaga erishtiraveradi. Chunki Egamiz uchun to‘sqinlik yo‘q.

7 — Siz nima desangiz, shu–da, — dedi qurolbardor. — Bo‘pti, boramiz. Ko‘nglingizga nima ma’qul kelsa, men ham siz bilan birgaman.

8 — Biz anavi odamlarga o‘zimizni ko‘rsatamiz, — dedi Yo‘natan. — Agar ular bizni ko‘rgach: 9 “Yoningizga borgunimizcha, o‘sha yerda to‘xtab turinglar”, deb aytsa, aytgan joyida to‘xtab turamiz, ularning oldiga bormaymiz. 10 Bordi–yu: “Yonimizga kelinglar”, desa boramiz. Ana shunda Egamiz Filistlarni bizning qo‘limizga berganini bilamiz, bizga alomat shu bo‘ladi.

11 Ikkovi Filistlarga ko‘rinish bergan edi, Filistlar:
— Qaranglar, ibroniylar yashiringan xandaqlaridan chiqa boshlashdi! — deb qoldi. 12 So‘ng Filistlar Yo‘natan bilan qurolbardoriga:
— Bu yoqqa kelinglar–chi, bir gaplashib qo‘yaylik, — deb baqirishdi. Yo‘natan qurolbardoriga:
— Orqamdan yur, Egamiz ularni Isroil xalqining qo‘liga berdi, — dedi. 13 Yo‘natan tirmashib qir tepasiga chiqa boshladi. Qurolbardori ham unga ergashdi. Oldidan kelgan Filistlarni Yo‘natan, orqadan kelganini qurolbardori o‘ldiraverdi. 14 Yo‘natan bilan qurolbardori birinchi hujumdayoq kichkina maydonda* yigirmatacha sipohni o‘ldirishdi. 15 Hammani — qarorgohdagi va qirdagi odamlarni vahima bosdi. Sipohlar, hatto ilg‘orlar* ham dag‘–dag‘ titrardi. Birdan yer tebrandi. Bu Xudo yuborgan dahshat edi.

Filistlar ustidan g‘alaba

16 Shoulning Benyamin hududidagi Givo shahrida o‘rnashgan kuzatuvchilari Filistlarning yugur–yugurini ko‘rib qolishdi. 17 Shoul yonidagi odamlarga:
— Bilinglar–chi, oramizda kim yo‘q ekan, — dedi. Yo‘qlama qilgan edilar, Yo‘natan bilan uning qurolbardori yo‘qligi ma’lum bo‘ldi. 18 Shoul Oxiyoga:
— Xudoning Sandig‘ini olib kel, — dedi. (O‘sha paytda Xudoning Sandig‘i Isroil xalqi bilan edi*.)

19 Shoul ruhoniy bilan gaplashayotgan paytda Filistlarning qarorgohidagi g‘ala–
g‘ovur rosa avjiga chiqdi. Shuning uchun Shoul ruhoniyga:
— Kerak emas, qo‘yaver! — dedi. 20 O‘sha zahoti Shoul va yonidagi sipohlarining
hammasi birga urush maydoniga ketishdi. U yerda katta g‘alayon bo‘layotgan edi,
hamma bir–biriga qilich solardi. 21 Shunda ilgari Filistlar tomonda bo‘lgan va ularning
qarorgohiga kelgan ibroniylar ham safdan chiqib, endi Shoul bilan Yo‘natanning
sipohlariga — Isroil sipohlariga qo‘shilib olishdi. 22 Efrayim qirlarida yashirinib olganlar
ham Filistlarning qochayotganini eshitib, ularni jang maydonidan quvlay boshladi.
23 Shunday qilib, o‘sha kuni Isroil lashkarini Egamiz g‘alabaga erishtirdi.

Shoul lashkariga ont ichiradi

Urush Bayt–Obunning narigi tomonlarigacha yoyildi. 24 O‘sha kuni Isroil lashkari
juda ham holdan toydi, chunki Shoul lashkariga ont ichirib, shunday degan edi:
“Dushmanlarimizdan o‘ch olmagunimizcha, oqshomga qadar kim bir luqma taom yesa,
la’nati bo‘lsin!” Shuning uchun biror kimsa hech narsa yemadi.
25-26 Lashkar o‘rmonga borganda, yerda oqib yotgan asalni ko‘rdi, lekin Shoul
ichirgan qasamdan qo‘rqib, birortasi asalga qo‘l tekkizmadi. 27 Yo‘natan esa otasining
lashkariga ont ichirganidan bexabar edi. Qo‘lidagi tayog‘ini uzatib, tayoq uchini asalari
iniga botirdi. Asaldan ozgina tatib ko‘rgan edi, ko‘zlari chaqnab ketdi. 28 Shu zahoti
sipohlardan biri Yo‘natanga:
— Otangiz lashkarga, bugun kim taom yesa, la’nati bo‘lsin, deb ont ichirgan edi,
shuning uchun odamlar holdan toygan, — dedi.
29 — Otam odamlarni og‘ir ahvolga solib qo‘ydi, — dedi Yo‘natan. — Qaranglar, mana
bu asaldan bir oz tatib ko‘rgan edim, ko‘zlarim charaqlab ketdi. 30 Bugun lashkarimiz
g‘animlardan tortib olgan taomlardan to‘yib yesaydi, juda yaxshi bo‘lardi. O‘shanda
Filistlarni mag‘lub qilish yanada oson bo‘larmidi?!
31 O‘sha kuni Isroil lashkari Mixmash bilan Oyjavlon* oralig‘idagi Filistlarni mag‘lub
qildi. Qorni ochgan Isroil lashkari shu qadar holdan toydiki, 32 oxiri ulardan o‘lja qilib
olingan chorvalarga tashlanishdan o‘zga chora qolmadi. Qo‘y, mol, buzoqlarni shu
yerning o‘zidayoq so‘yib, qonini oqizmasdan yeyaverishdi.
33 — Qarang, lashkaringiz go‘shtni qoni bilan yeb, Egamizga qarshi gunoh ish
qilyapti!* — deb ahvolni Shoulga ma’lum qilishdi.
— Xoinlik qildingizlar, hoziroq katta bir toshni bu yerga yumalatib olib kelinglar! —
dedi Shoul. 34 So‘ng qo‘shib qo‘ydi:
— Lashkar orasida yurib aytinglar, har bir odam molini, qo‘yini mening huzurimga
olib kelib, shu yerda* so‘yib, yesin. Go‘shtni qoni bilan yeb, Egamizga qarshi gunoh ish
qilmanglar.
O‘sha kuni kechasi har bir odam molini olib kelib, Shoulning oldida so‘ydi. 35 Shoul
Egamizga atab bir qurbongoh qurdi. Bu Shoulning Egamizga atab qurgan ilk qurbongohi
edi.
36 Keyin Shoul odamlariga aytdi:
— Qani, shu kecha Filistlarni bir quvaylik. Tong otguncha mollarini tortib olamiz,
birortasini sog‘ qoldirmaymiz.
— Bir og‘iz so‘zingiz, — deb javob berishdi odamlar.
— Avval Xudoning xohish–irodasini bilaylik*, — deb qoldi ruhoniy. 37 Shoul

Xudodan:

— Filistlarga hujum qilaveraymi? Ularni Isroil lashkarining qo‘liga tutib berasanmi? — deb so‘radi. Lekin Xudo o‘sha kuni javob bermadi. 38 Shundan so‘ng Shoul dedi:

— Isroilning hamma lashkarboshilari shu yerga kelishsin, bugun qanday gunoh qilinganini bilib olamiz. 39 Isroilga najot beradigan Xudo shohid! Gunoh qilgan o‘g‘lim Yo‘natan bo‘lib chiqsa ham, albatta o‘ldiriladi.

Biron kimsadan sado chiqmadi. 40 Shoul o‘z odamlariga buyurdi:

— Sizlar bir tomonda turinglar, o‘g‘lim Yo‘natan bilan men boshqa tomonda turamiz.

— Bir og‘iz so‘zingiz, — deb javob berdi odamlar.

41 Shoul Isroil xalqining Xudosi — Egamizga:

— Ey Egam! Aybsizni o‘zing oqla! — deb iltijo qildi.

So‘ng qur’a tashlandi*, qur’a Yo‘natan bilan Shoulga tushdi, odamlarning hammasi esa oqlandi.

42 — Endi men bilan o‘g‘lim Yo‘natan orasiga qur’a tashlang, — dedi Shoul. Bu safar qur’a Yo‘natanga tushdi. 43 Shoul Yo‘natandan:

— Menga ayt–chi, nima qilding? — deb so‘radi.

— Men qo‘limdagi tayoqning uchini asalga botirib olib, ozgina tatib ko‘rgan edim, endi men o‘limimga roziman, — deb javob berdi Yo‘natan.

44 — Yo‘natan, agar seni o‘ldirtirmasam, Xudoning qahriga uchray, hatto undan battarrog‘iga uchray, — dedi Shoul. 45 Ammo odamlar Shoulga e’tiroz bildirdi:

— Isroilni ulug‘ zafarga erishtirgan Yo‘natanni o‘ldirmoqchimisiz? Aslo! Xudo shohid! Sochining bir tolasiga ham zarar yetmaydi. U bugun nima qilgan bo‘lsa, Xudoning madadi bilan qildi.

Shunday qilib, odamlar Yo‘natanni o‘limdan qutqarib qoldi.

46 Shundan so‘ng Shoul Filistlarni ta’qib qilmadi. Filistlar esa o‘z yerlariga qaytib ketishdi.

Shoulning erishgan g‘alabalari

47 Shoul Isroil shohi bo‘lgandan keyin atrofidagi barcha dushmanlari — Mo‘ab, Ommon, Edom xalqlari, Zo‘vo shohlari va Filistlar bilan urush qildi. Qayerga borsa, g‘alaba qildi. 48 Mardona jang qilib Omolek xalqini mag‘lub qildi, Isroil xalqini talonchilarning qo‘lidan xalos qildi.

Shoulning oilasi

49 Shoulning Yo‘natandan boshqa Ishbosit* va Malkishuva ismli o‘g‘illari bor edi. Uning ikki qizi ham bo‘lib, kattasining ismi Merav, kichkinasiniki Mixal edi. 50 Xotini Oxinavam edi. U Oximas deganning qizi edi. Shoulning amakisi Narning o‘g‘li Abnur lashkarboshi edi. 51 Abnurning otasi Nar va Shoulning otasi Kish aka–uka edilar. Nar va Kishning otasi Abil edi.

52 Shoul davrida Filistlar bilan doimo qaqshatqich urush bo‘lar edi. Shoul qayerda mard yoki jang qilishga mohir odamni ko‘rsa, o‘z qo‘shiniga olardi.

15–BOB

Omolek xalqi bilan jang

1 Bir kuni Shomuil Shoulga shunday dedi:

— Egamiz senga moy surtib, O‘z xalqi Isroilning shohi qilish uchun meni sening oldingga yuborgan edi. Endi Egamizning so‘zlarini eshit. 2 Sarvari Olam shunday aytmoqda: “Isroil xalqiga qilgan yovuzliklari uchun Omolek xalqini* jazolayman. Chunki Isroil xalqi Misrdan chiqayotganda, Omolek xalqi ularning yo‘lini to‘sib qo‘ygan edi*. 3 Endi borib, Omolek xalqiga hujum qil. Ularga qarashli hamma narsani tamoman yo‘q qilib tashla, hech narsasini ayama. Erkagu ayol, bola–chaqa, molidan tortib, qo‘yigacha, tuyasidan tortib, eshagigacha hammasini o‘ldir.”

4 Shoul lashkarini Taloyim shahrida to‘plab sanab chiqdi. Isroildan 200.000 nafar piyoda sipohi, Yahudodan ham 10.000 nafar sipohi bor ekan.

5 Shoul Omolek xalqiga qarashli bo‘lgan shaharga borib, soylikda* pistirma qo‘ydi. 6 O‘sha yerdagi Xayin xalqiga quyidagi xabarni jo‘natdi: “Endi ketinglar, Omolek xalqini tark etinglar, tag‘in sizlarni ham ular bilan birga yo‘q qilib yubormayin. Isroil xalqi Misrdan chiqayotgan paytda, sizlar bizga yaxshilik qilgandingiz.”

Shundan keyin Xayin xalqi Omolek xalqini tark etdi.

7 Shoul Xaviladan Misrning sharqidagi Shurgacha bo‘lgan joylardagi Omolek xalqini tor–mor qildi. 8 U Omolek shohi O‘gaxni tiriklayin qo‘lga olib, xalqini butunlay qirib tashladi. 9 Shoul va uning odamlari O‘gaxni hamda uning eng yaxshi qo‘y–mollarini, buzoq–qo‘zilarini, jamiki yaxshi narsalarini ayab, saqlab qolishdi. Ularni butunlay yo‘q qilib tashlashni istashmadi. Faqat arzimas, nuqsonli hayvonlarini yo‘q qilishdi.

Xudo Shoulni rad etadi

10 Egamiz Shomuilga shu so‘zlarni ayon qildi: 11 “Shoulni shoh qilib tayinlaganimga pushaymonman. U Mendan yuz o‘girdi, amrlarimni bajo qilmadi.” Shomuil xafa bo‘lib, tun bo‘yi Egamizga yolvorib chiqdi.

12 Shomuil ertasi kuni saharda, Shoul bilan ko‘rishay deb borsa, Shoul Karmil shahriga* ketibdi. Bilsaki, u yerda o‘ziga bir yodgorlik o‘rnatibdi. Keyin Gilgalga qaytibdi. 13 Shomuil Shoulning oldiga kelganda, Shoul:

— Xudo sizni yorlaqasin! Men Egamizning amrini ado etdim, — dedi.

14 — Agar shunday bo‘lsa, qulog‘imga eshitilayotgan qo‘yning ma’rashi nimasi? Men eshitayotgan sigirning bo‘kirishi nimasi? — deb so‘radi Shomuil.

15 — Odamlarim Omolek xalqining hayvonlarini tortib oldi, — dedi Shoul, — Egangiz Xudoga qurbonlik qilish uchun qo‘y, sigirlarning eng saralarini ayab, saqlab qolishdi. Qolganlarini esa butunlay qirib tashladik.

16 — Shoshmay tur, bu kecha Egamizning menga nimalar aytganini senga bildirib qo‘yayin, — dedi Shomuil.

— Ayting, — dedi Shoul.

17 Shomuil gapida davom etdi:

— O‘zingni kichik deb sanasang–da, Isroil xalqining yo‘lboshchisi bo‘lmadingmi?! Egamiz senga moy surtib tanlab, Isroilga shoh qilmadimi?! 18 U senga: “Bor, o‘sha gunohkor Omolek xalqini butunlay qirib tashla, hammasini yo‘qotmaguningcha, ular bilan jang qil”, deb amr bergan edi–ku. 19 Nega endi Egamizning amriga itoat etmading?! Nima uchun o‘ljaga tashlanib, Egamiz oldida qabihlik qilding?!

20 — Axir, men Uning amrlariga itoat qildim–ku! — dedi Shoul. — Men, Egamiz amr berganiday, bordim. Omolek shohi O‘gaxni bu yerga olib keldim. Omolek xalqini esa butunlay qirib tashladim. 21 Odamlarim qirib tashlanishi kerak bo‘lgan o‘ljadan faqat eng

sara mol–qo‘ylarni olishdi, xolos. Bu mol–qo‘ylarni Gilgalga olib kelib, Egangiz Xudoga qurbonlik qilishmoqchi.
22 Shomuil shunday javob berdi:

“Kuydiriladigan va boshqa qurbonliklardan ko‘ra,
Egamiz itoat etganlardan shod bo‘lmasmi?!
Ha, itoat etish — qurbonlik so‘yishdan yaxshi,
Xudoga itoatkorlik — qo‘chqorlar yog‘idan a’loroqdir.
23 O‘zboshimchalik sehr–joduga o‘xshab gunohdir,
Itoatsizlik esa but–sanamga bosh egish bilan tengdir.
Sen Egamizning amrini rad etding,
Egamiz ham sening shohligingni rad etdi.”

24 — Gunoh qildim! — dedi Shoul. — Ha, Egamizning amriga ham, sizning so‘zlaringizga ham xilof ish tutdim. Xalqdan hayiqqanim uchun ularning gapiga kirdim.
25 Endi yolvoraman: gunohimdan o‘ting, men bilan birga qaytib boring, Egamizga sajda qilayin.
26 — Sen bilan bormayman, — dedi Shomuil. — Chunki sen Egamizning amrini rad etding, Egamiz ham seni rad etib, Isroil taxtidan tushirdi.
27 Shomuil burilib, ketmoqchi bo‘lgan edi, Shoul uning ridosi etagidan ushlab qoldi. Rido yirtildi.
28 — Rido yirtilgani singari, Egamiz ham bugun Isroil shohligini qo‘lingdan tortib olib, sendan ko‘ra, yaxshirog‘iga berdi, — dedi Shomuil. 29 — Isroilning ulug‘vor Xudosi yolg‘on so‘zlamas, fikrini ham o‘zgartirmas. U inson emaski, fikrini o‘zgartirsa.
30 — Gunoh qildim, — dedi Shoul, — endi xalqimning oqsoqollari oldida, Isroil xalqi oldida meni beobro‘ qilmang. Shuning uchun men bilan birga qaytib boring, Egangiz Xudoga sajda qilayin.
31 Shomuil Shoul bilan birga orqaga qaytib bordi. Shoul Egamizga sajda qildi.
32 Shomuil:
— Omolek shohi O‘gaxni mening oldimga olib kelinglar! — deb buyurdi. O‘gaxni bog‘langan holda, Shomuilning oldiga olib kelishdi. O‘gax o‘zicha: “O‘lim xavfi aniq o‘tib ketdi”, deb o‘yladi. 33 Lekin Shomuil:
— Qiliching ayollarni farzandidan qanday judo qilgan bo‘lsa, sening onang ham ayollar orasida befarzand bo‘lsin! — dedi–yu, O‘gaxni Egamizning oldida Gilgalda qilich bilan chopib tashladi.
34 Shundan so‘ng Shomuil Ramaga, Shoul esa Givoga — uyiga ketdi. 35 Shomuil umrining oxirigacha Shoulni boshqa ko‘rmadi, lekin u Shoulni deb g‘amgin bo‘lib yurdi. Egamiz esa Shoulni Isroil shohi qilganidan pushaymon edi.

16–BOB

Egamiz Dovudga moy surtib shoh qilib tanladi

1 Egamiz Shomuilga aytdi:
— Sen qachongacha Shoulni deb g‘amgin bo‘lib yurasan?! Shoul Isroil shohi bo‘lmasin deb, uni Men rad etdim. Qani, endi qo‘chqor shoxini* moy bilan to‘ldirib,

yo‘lga otlan. Seni Baytlahmlik Essayning uyiga jo‘nataman. Men uning o‘g‘illaridan bittasini shoh qilib tanladim.

2 — Qanday qilib boraman?! Shoul eshitib qolsa, meni o‘ldiradi–ku! — dedi Shomuil.

— O‘zing bilan bitta buzoqchani olgin–da: “Egamizga qurbonlik qilgani keldim”, deb ayt, — dedi Egamiz. 3 — Essayni qurbonlikka taklif qil. O‘shanda nima qilishing kerakligini Men senga ayon qilaman, O‘zim senga ko‘rsatadigan odamning boshiga Mening nomimdan moy surtib, uni tanlaysan.

4 Shomuil, Egamiz buyurganiday, Baytlahm shahriga ketdi. Shahar oqsoqollari uni qo‘rqib kutib olishdi va:

— Tinchlikmi? — deb so‘rashdi.

5 — Ha, tinchlik, — dedi Shomuil. — Egamizga qurbonlik qilgani keldim. O‘zlaringizni poklanglar*, men bilan qurbonlik marosimiga borasizlar.

So‘ng Essayni va uning o‘g‘illarini ham poklab qurbonlik marosimiga taklif qildi.

6 Essay o‘g‘illari bilan kelgach, Shomuil Eliyobni ko‘rdi–yu: “Egamiz oldida turgan bu odam, shubhasiz, Uning moy surtib tanlagan odamidir”, deb o‘yladi.

7 Egamiz esa Shomuilga dedi:

— Uning chiroyi va qomatdorligiga qarama. Men uni rad etdim, chunki Men insonlarday emasman. Insonlar tashqi ko‘rinishiga qaraydi, Men esa diliga qarayman.

8 So‘ng Essay boshqa o‘g‘li Abunadavni chaqirib, Shomuilning oldidan o‘tkazdi. Lekin Shomuil:

— Egamiz buni ham tanlamadi, — dedi. 9 Shundan so‘ng Essay Shammoxni Shomuilning oldidan o‘tkazdi. Lekin u yana:

— Egamiz buni ham tanlamadi, — dedi.

10 Shu tariqa Essay yettala o‘g‘lini Shomuilning oldidan o‘tkazdi. Ammo Shomuil:

— Egamiz bulardan birortasini tanlab olmadi, — dedi.

11 Nihoyat Shomuil Essaydan:

— O‘g‘illaringning hammasi shularmi? — deb so‘radi.

— Yana eng kenjasi bor, qo‘y boqyapti, — dedi Essay.

— Birortasini jo‘nat, uni chaqirib kelsin, — dedi Shomuil. — O‘sha o‘g‘ling bu yerga kelmaguncha, taom yemoqqa o‘tirmaymiz.

12 Essay bittasini yuborib, o‘g‘lini chaqirtirib keldi. U chiroyli, kelishgan yigit bo‘lib, ko‘zlari yonib turardi.

— Qani, uning boshiga moy surtib tanla! Men tanlagan odam shu! — dedi Egamiz Shomuilga.

13 Shomuil moy solingan shoxni oldi–da, akalarining ko‘z o‘ngida yigitning boshiga moy surtdi. O‘sha paytda Egamizning Ruhi Dovudni qamrab oldi va o‘sha kundan boshlab uni boshqaradigan bo‘ldi. Shomuil esa Ramaga qaytib ketdi.

Dovud Shoulning saroyida

14 Egamizning Ruhi Shoulni tark etdi. Egamiz yuborgan yovuz ruh uni qiynar edi.

15 — Bilamiz, Xudo yuborgan yovuz ruh sizni qiynaydi, — deyishdi xizmatkorlar Shoulga. 16 — Janobi oliylari biz, qullariga amr bersalar, lirani yaxshi chaladigan odamni topib kelar edik. Xudo yuborgan yovuz ruh sizni tutib qolganda, u lira chaladi, siz esa yengil tortasiz.

17 Shoul xizmatkorlariga:

— Mayli, lirani yaxshi chaladigan birortasini topib, mening huzurimga olib kelinglar, — deb buyurdi.

18 — Baytlahmlik Essayning o‘g‘illaridan birini ko‘rgan edim, — dedi yigitlardan bittasi. — Lirani yaxshi chalar ekan. Buning ustiga, jasur jangchi, gaplari ma’nili, o‘zi ham kelishgan yigit. Egamiz u bilan.

19 Shoul Essayga: “Qo‘y boqib yurgan o‘g‘ling Dovudni mening huzurimga yubor”, deb xabarchi jo‘natdi. 20 Essay non, bir mesh sharob va bitta uloqchani bitta eshakka yuklab berib, o‘g‘li Dovudni Shoulning huzuriga yubordi. 21 Dovud Shoulning huzuriga kelib, uning xizmatiga kirdi. Dovudga Shoulning qattiq mehri tushib qoldi, uni o‘ziga qurolbardor qilib oldi. 22 Shoul Essayga: “Ijozat bersang, Dovud mening xizmatimda qolsin, undan juda mamnunman” degan xabarni jo‘natdi.

23 O‘sha kundan boshlab Xudo yuborgan yovuz ruh Shoulni qiynaganda, Dovud lirani olib chalar, Shoul o‘ziga kelib rohatlanar, yovuz ruh Shouldan chekinardi.

17–BOB

Go‘liyot Isroil xalqini olishuvga chaqiradi

1 Filistlar, jang qilamiz deb, lashkarini to‘plab, Yahudo hududidagi So‘xu shahrida yig‘ilishdi. So‘xu bilan Ozikah shaharlari* orasidagi Efes–Dammim degan joyda qarorgoh qurishdi. 2 Shoul ham Isroil lashkarini to‘pladi. Elox vodiysida qarorgoh qurib, Filistlarga qarshi jangga tayyorlandi. 3 Bir tepalikni Filistlar, boshqa tepalikni Isroil lashkari egalladi. Ikkala tomonning o‘rtasi vodiy edi.

4 Filistlar safidan Go‘liyot degan bir pahlavon o‘rtaga chiqdi. U Gat shahridan edi. Bo‘yi olti tirsagu bir qarich* bo‘lib, 5 boshiga bronza qalpoq, ustiga bronza sovut kiyib olgan edi. Sovutning og‘irligi uch yarim pud* edi. 6 Boldirlari bronza zirhlar bilan o‘ralgan edi. Yelkasida otiladigan bronza nayzani ko‘tarib yurardi. 7 Qo‘lidagi nayzaning sopi esa to‘quvchi dastgohining xodasiday kelar, nayza uchidagi temirning og‘irligi yarim pud* edi. Go‘liyotning oldida qurolbardori uning katta qalqonini ko‘tarib yurardi.

8 Go‘liyot o‘rnida turganicha, Isroil qarorgohiga qarab hayqirdi:

— Biz bilan urishgani saf tortdingizlarmi?! Men Filistman, sizlar Shoulning qullarimisiz, axir?! Orangizdan birortangizni tanlanglar–chi, u mening oldimga kelsin. 9 Agar u men bilan olishib, meni yengib o‘ldira olsa, Filistlar sizlarning qulingiz bo‘ladi. Bordi–yu, men g‘olib kelib, uni o‘ldirsam, sizlar bizning qulimiz bo‘lasizlar, bizga bo‘ysunasizlar.

10 So‘ng o‘sha Filist gapida davom etdi:

— Bugun Isroil lashkarini sharmanda qilaman. Qani, birortasini chiqaring oldimga! Men bilan olishib ko‘rsin!

11 Shoul va barcha Isroil lashkari Filistning gaplarini eshitgach, qattiq qo‘rqib, vahimaga tushib qoldilar.

Dovud jang maydonida

12 Dovud Yahudo hududidagi Baytlahm shahridan — Efratlik* Essay degan odamning o‘g‘li edi. Essayning sakkizta o‘g‘li bor edi. Shoulning shohligi davrida Essay ancha keksayib qolgan edi. 13 Essayning katta o‘g‘illaridan uchtasi Shoul bilan birga urushga ketgan edi. Urushga ketgan to‘ng‘ich o‘g‘lining oti Eliyob, o‘rtanchasiniki Abunadav, uchinchisiniki Shammox edi. 14 Dovud kenja o‘g‘il edi. Uning uchta katta akasi esa Shoul

bilan birga edi. 15 Shu paytda Dovud vaqti–vaqti bilan Shoulning oldidan Baytlahmga
otasining qo‘ylarini boqqani kelib turardi. 16 Filist Go‘liyot qirq kun mobaynida ertayu
kech o‘rtaga chiqib urushga da’vat qildi.
17 Essay bir kuni o‘g‘li Dovudga shunday dedi:
— Mana bu qovurilgan bir tog‘ora* bug‘doy bilan anavi o‘nta nonni olgin–u, tezda
qarorgohga, akalaringning oldiga jo‘na. 18 Mana bu o‘n bo‘lak pishloqni esa mingboshiga
olib bor. Akalaringning ahvolini bil va yaxshi yurganlarini bildiradigan birorta nishona
olib kel. 19 Akalaring Shoul lashkari bilan birga Elox vodiysida Filistlarga qarshi
urishyaptilar.
20 Ertasi kuni Dovud saharda turdi. Suruvni bir cho‘ponga qoldirdi. Otasi
buyurganiday, oziq–ovqatlarni olib yo‘lga chiqdi. Jang maydoniga yetib borgan paytda
sipohlar jangga da’vat qilinib, qarorgohdan urishgani chiqayotgan ekanlar. 21 Isroil
lashkari bilan Filistlar bir–birlariga ro‘para bo‘lib, saf tortdilar. 22 Dovud keltirgan
narsalarini orqadagi qo‘riqchiga qoldirib, safga tomon yugurdi. Akalarining yoniga
borib, ular bilan salomlashdi. 23 Dovud ular bilan gaplashib turganda, Gat shahridan
bo‘lgan Filist — pahlavon Go‘liyot o‘z lashkari safidan o‘rtaga chiqib, oldingi gaplarini
takrorladi. Dovud uning gaplarini eshitdi. 24 Isroil lashkari Go‘liyotni ko‘rishdi–yu, qattiq
qo‘rqib birdaniga qochib qolishdi. 25 Ular bir–birlariga shunday derdilar:
— Anavi odamga qaranglar! U Isroilni haqorat qilyapti. Kim uni o‘ldirsa, shoh unga
katta boylik hadya qilar ekan, qizini ham berar ekan. O‘sha odamning ota xonadonini
ham Isroilga soliq to‘lashdan ozod qilar ekan.
26 Dovud yonidagilardan so‘radi:
— Bu Filistni o‘ldirib, Isroilni sharmandalikdan xalos qilganga shoh nima beradi? Bu
sunnatsiz Filist kim bo‘libdiki, barhayot Xudoning qo‘shinini haqorat qiladi?!
27 — O‘sha odamni kim o‘ldirsa, falon–falon narsalar tortiq qilinadi, — deb sipohlar
oldingi gaplarini takrorladilar. 28 To‘ng‘ich akasi Eliyob Dovudning sipohlar bilan
gaplashib turganini ko‘rib achchiqlandi:
— Bu yerda nima qilib yuribsan? O‘sha besh–oltitagina qo‘yimizni cho‘lda kimga
qoldirib kelding? Sening qanchalik manmanligingni, niyating yomonligini bilaman. Sen
faqat urushni tomosha qilgani kelgansan.
29 — Men nima qilibman?! So‘rab ham bo‘lmaydimi?! — dedi Dovud.
30 So‘ngra boshqa sipohga qarab, yana o‘sha gapni so‘radi. Sipohlar avvalgiday bir xil
javob berishdi.
31 Sipohlar Dovudning gaplarini eshitib, Shoulga yetkazishdi. Shoul Dovudni
chaqirtirdi. 32 Dovud Shoulga dedi:
— O‘sha Filistni deb hech kimning ruhi tushmasin. Men, qulingiz, borib, u bilan
olishaman.
33 — Tentaklik qilma, bu Filistga bas kelolmaysan. Sen juda yoshsan, u esa
yoshligidan beri jangchi, — dedi Shoul.
34 — Men otamning suruvini boqardim, — deb javob berdi Dovud. — Sher yoki ayiq
kelib, suruvdan birorta qo‘zini olib qochsa, 35 orqasidan quvib, unga hujum qilardim.
Qo‘zini o‘sha hayvonning og‘zidan tortib olardim. Bordi–yu, sher yoki ayiq menga
tashlansa, yolidan ushlardim–u, urib o‘ldirardim. 36 Men sherni ham, ayiqni ham
o‘ldirganman. Anavi sunnatsiz Filistning boshiga o‘shanday kunni solaman. Chunki u
barhayot Xudoning qo‘shinini haqorat qildi. 37 Meni sher, ayiqning panjasidan xalos

qilgan Egamiz o‘sha Filistning qo‘lidan ham xalos qiladi.

— Mayli bor, Xudo yor bo‘lsin, — dedi Shoul. 38 So‘ng u o‘zining jang kiyimlarini Dovudga berdi, boshiga bronza qalpoq, egniga sovut kiydirdi. 39 Dovud shohning sovutlarini kiyib, ustidan qilichini bog‘lab, yurmoqchi bo‘ldi. Lekin u bunaqa kiyimlarga ko‘nikmagan edi.

— Bu kiyimlar bilan yura olmayapman, ko‘nikmaganman, — dedi Dovud Shoulga. So‘ng kiyimlarni yechib tashladi.

Dovud Go‘liyotni o‘ldiradi

40 Dovud tayog‘ini olib, soylikdagi irmoqdan beshta silliq tosh terib oldi. Toshlarni yonidagi cho‘pon xaltasiga soldi–da, palaxmonini olib to‘g‘ri Go‘liyotga tomon yurdi. 41 Go‘liyot ham Dovudga qarab yurdi. Go‘liyotning oldida qurolbardori qalqonini ko‘tarib borardi. 42 Go‘liyot Dovudga boshdan–oyoq razm soldi. Chiroyli, kelishgan yigit ekan, deb yoshgina bo‘lgani uchun uni mensimadi.

43 — Men ko‘ppakmidimki, ustimga tayoq bilan kelyapsan? — dedi–da, o‘z xudolarining nomi bilan Dovudga qarg‘ish yog‘dirdi. 44 — Kelaver, tanangni ko‘kdagi qushlarga, dashtdagi yirtqichlarga yem qilaman, — dedi Filist. 45 Dovud esa shunday javob qaytardi:

— Sen qilich, nayzayu xanjarlar bilan ustimga bostirib kelyapsan. Men esa sen haqoratlagan Isroil lashkarining Xudosi, Sarvari Olamning nomi bilan qurollanib ustingga bostirib boryapman. 46 Bugunning o‘zida Egamiz seni mening qo‘limga beradi. Seni o‘ldirib, boshingni tanangdan judo qilaman. Bugunning o‘zida Filist lashkarining jasadlarini ko‘kdagi qushlarga, dashtdagi yirtqichlarga yem qilaman. Shunda Isroilda Xudoning borligini butun yer yuzi bilib oladi. 47 Egamiz qilichu nayza bilan najot bermasligini butun jamoa bilib oladi, chunki bu urushda Egamizning O‘zi jang qiladi. U sizlarni bizning qo‘limizga beradi.

48 Go‘liyot Dovudga tashlanmoqchi bo‘lib, to‘g‘ri unga qarab yurdi. Dovud ham u bilan olishish uchun Filistlar safi tomon tez yugurib ketdi. 49 Qo‘lini xaltasiga solib, bitta toshni oldi–da, palaxmonga solib otdi. Tosh Filistning qoq peshanasiga tegib o‘yib kirdi. Filist yuz tuban yerga yiqildi. 50 Shunday qilib, Dovud Filistni palaxmonu bitta tosh bilan mag‘lub qildi. Qo‘lida qilich bo‘lmasa ham, uni o‘ldirib, yerga cho‘ziltirib tashladi.
51 So‘ng yugurib bordi–yu, Go‘liyotni bosib oldi. Uning qilichini qinidan sug‘urib oldi–da, boshini kesib tashlab, butunlay bir yoqli qildi.

Filistlar o‘zlarining pahlavoni Go‘liyotning o‘lganini ko‘rib, tumtaraqay qocha boshladilar. 52 Isroil bilan Yahudo lashkari qo‘zg‘aldi–yu, na’ra tortib, Filistlarni Gat va Exron ostonalarigacha quvlab bordi. Sharayimdan Gat va Exron shaharlarigacha boradigan yo‘lda Filistlarning jasadlari cho‘zilib qoldi. 53 Filistlarni quvib yuborgandan keyin, Isroil lashkari orqaga qaytib Filistlar qarorgohini talon–taroj qildi. 54 Dovud Go‘liyotning boshini olib, Quddusga keltirdi, qurol–aslahasini esa o‘z uyiga qo‘ydi.

Dovud Shoulning huzurida

55 Shoul Dovudning Go‘liyot bilan olishuvga chiqqanini ko‘rganda, lashkarboshi Abnurdan:

— Abnur, bu yigitcha kim? — deb so‘radi.

— To‘g‘risi, shohim, bilmayman, — dedi Abnur.

56 — Bo‘lmasa bil–chi, bu yigit kimning o‘g‘li ekan, — deb buyurdi shoh Shoul.

57 Dovud Go‘liyotni o‘ldirib, qarorgohga endi kirgan ham ediki, Abnur Dovudni
yetaklab Shoulning huzuriga olib keldi. Go‘liyotning kesilgan boshi hali Dovudning
qo‘lida edi.
58 — Kimning o‘g‘lisan, yigitcha? — deb so‘radi Shoul.
— Baytlahmlik qulingiz Essayning o‘g‘liman, — deb javob berdi Dovud.

18–BOB

1 Shoul bilan Dovudning suhbati endi tugagan ham ediki, Yo‘natanning* ko‘ngli
Dovudga bog‘landi, Yo‘natan uni o‘z joni kabi aziz ko‘rdi. 2 O‘sha kundan boshlab Shoul
Dovudni yonida olib qoldi, otasining uyiga qaytib ketishiga ijozat bermadi. 3 Yo‘natan
Dovudni o‘z joniday aziz ko‘rgani uchun u bilan ahd qildi. 4 Ustidagi kiyimini yechib
berdi, sovuti, qilichi, kamoni va kamarini ham Dovudga hadya qildi.
5 Shoul Dovudni qayerga jo‘natmasin, Dovud muvaffaqiyatga erishdi. Shu bois Shoul
unga qo‘shinidagi katta lavozimni berdi. Bu voqeadan barcha xalq ham, Shoulning
xizmatkorlari ham xushnud bo‘lishdi.

Shoul Dovudga hasad qiladi

6 Dovud Go‘liyotni o‘ldirgandan keyin, jangchilar o‘z uylariga qaytayotgan edi.
Isroilning hamma shaharlaridan kelgan ayollar childirma va torli musiqa asboblarini
chalib, o‘yin–kulgi qilib, shoh Shoulni kutib olgani chiqishdi. 7 Yayrab–o‘ynasharkan, shu
qo‘shiqni aytishardi:

“Shoul minglarchasini o‘ldirdi,
Dovud esa o‘n minglarchasini!”

8 Bu so‘zlar Shoulga og‘ir botdi, uning g‘ashini keltirdi. “Dovudga o‘n mingtasini,
menga esa mingtasini berishdi! Unga shoh bo‘lishdan boshqa yana nima qoldi?!” deb
o‘yladi. 9 Shunday qilib, o‘sha kundan boshlab Shoul Dovudga yomon ko‘z bilan qaray
boshladi.
10 Ertasi kuni Xudo yuborgan yovuz ruh Shoulni qamrab oldi, u o‘z uyida jazavaga
tushdi. Dovud har galgiday yana lira chalib o‘tirar, Shoulning qo‘lida nayza bor edi. 11 U
o‘zicha: “Dovudni nayza bilan urib devorga qoqib qo‘yaman”, deb nayzani unga qaratib
otdi. Lekin Dovud ikki safar ham unga chap berib qutulib qoldi.
12 Shoul Dovuddan qo‘rqardi. Chunki Egamiz Dovud bilan birga edi, Shoulni esa tark
etgan edi. 13 Shu sababli Shoul o‘z yonidan Dovudni uzoqlashtirdi, uni mingta sipohga
bosh etib tayinladi. Dovud lashkarga bosh bo‘lib, jangga borardi. 14 Egamiz Dovud bilan
bo‘lgani uchun, u har qanday ishning uddasidan chiqardi. 15 Dovudning katta
muvaffaqiyatini ko‘rib, Shoul battarroq qo‘rqardi. 16 Butun Yahudo va Isroil xalqi
Dovudni yaxshi ko‘rardi, chunki Dovud ularning oldingi safida yurib, jangga borardi.

Dovud Shoulning qiziga uylanadi

17 Bir kun Shoul Dovudga dedi:
— To‘ng‘ich qizim Meravni senga beraman. Faqat dovyurak bo‘lib, men uchun
Egamizning urushlariga bosh bo‘l.
Shoul: “Dovud mening qo‘lim bilan emas, Filistlarning qo‘li bilan o‘ldirilsin”, deb
o‘ylardi.

18 Dovud Shoulga:
— Men oʻzim kim boʻlibman yoki Isroilda oilam, otam xonadoni nima boʻlibdiki, shohga kuyov boʻlsam?! — dedi.
19 Shunday qilib, Shoulning qizi Merav Dovudga uzatiladigan boʻldi. Lekin Shoul qizini, Dovudga bermay, Maxlalik Odriyolga uzatdi. 20 Shoulning boshqa qizi Mixal esa Dovudga koʻngil qoʻygan edi. Buni eshitgan Shoul xursand boʻldi. 21 “Dovudga Mixalni beraman, qizimni berib, Dovudni tuzogʻimga ilintirib olaman, Filistlar esa uni oʻldiradi”, deb oʻyladi.
— Endi bu safar qulay fursat yetdi, menga kuyov boʻlasan, — dedi Dovudga Shoul.
22 Keyin Shoul a’yonlariga:
— Dovudga, shoh sendan xursand, hamma xizmatkorlari ham seni yaxshi koʻradi, shohga kuyov boʻladigan payting keldi, deb yashirincha aytinglar, — dedi.
23 Shoulning a’yonlari bu gapni Dovudga yetkazishdi. Dovud esa shunday javob qaytardi:
— Men kambagʻal, arzimas bir odam boʻlsam, shohga kuyov boʻlish, sizlar aytganday, osonmi?!
24 A’yonlar, oʻz navbatida, Dovudning gaplarini Shoulga yetkazishdi. 25 Shoul shunday amr berdi:
— Dovudga, shoh gʻanimlaridan oʻch olmoqchi, shuning uchun qalinga yuzta Filistning sunnat terisidan* boshqa narsa istamaydi, deb aytinglar.
Shoul shu yoʻsinda Dovudning Filistlar qoʻliga tushib nobud boʻlishini rejalashtirgan edi.
26 A’yonlar Shoulning aytganlarini Dovudga yetkazishdi. Dovud, oʻshanda shohga kuyov boʻlishga haqli boʻlar ekanman–da, deb sevindi. Belgilangan kundan oldin,
27 Dovud va uning odamlari borib, ikki yuzta Filistni oʻldirdi. Dovud oʻldirilgan Filistlarning sunnat terisini bitta ham qoldirmay, shohga keltirib berib, shohning kuyovi degan nomga munosib ishlarni bajardi. Shundan soʻng Shoul qizi Mixalni Dovudga turmushga berdi.
28 Shoul endi aniq bildiki, Egamiz Dovud bilan birga ekan, qizi Mixal ham Dovudni sevar ekan. 29 Shunday qilib, Dovuddan yanada hadiksirab, umrining oxirigacha unga dushman boʻlib qoldi.
30 Filist beklari qachon hujum qilsalar, Dovud Shoulning boshqa lashkarboshilariga qaraganda ortiq zafarga erishardi. Shu sababdan Dovud katta shuhrat qozondi.

19–BOB

Shoul Dovudni oʻldirishni rejalashtiradi

1 Shoul hamma a’yonlariga va oʻgʻli Yoʻnatanga, Dovud oʻldirilsin, deb farmon berdi. Yoʻnatan esa Dovudni juda yaxshi koʻrardi.
2 — Otam Shoul seni oʻldirmoqchi, — deb u Dovudni ogohlantirdi. — Ertaga tong payti hushyor boʻl, biror joyga borib yashirinib, jim oʻtir. 3 Men esa otamni sen yashiringan dalaga boshlab boraman. Oʻsha yerda sen toʻgʻringda u bilan gaplashaman. Biror xabar eshitsam, senga yetkazaman.
4 Yoʻnatan otasi Shoulga Dovudni maqtab shu gaplarni aytdi:
— Shoh oʻz quli Dovudga qarshi gunoh qilmasinlar. Chunki u sizga hech qachon

haqsizlik qilmagan. Har bir ishi bilan sizga katta foyda keltirgan. 5 Jonini xavf ostiga
qo‘yib, Filistni o‘ldirdi, Egamiz Dovud tufayli Isroil xalqini katta zafarga erishtirdi. Siz
bularni ko‘rib sevindingiz. Shunday ekan, nega Dovudni bekordan–bekorga nobud
qilmoqchisiz, begunohning qonini to‘kib gunoh qilmoqchisiz?
6 Shoul Yo‘natanning gaplarini anglab:
— Xudo shohid! Dovudning joniga hech kim qasd qilmaydi, — deb ont ichdi.
7 Yo‘natan Dovudni chaqirtirib keldi va bo‘lib o‘tgan gap–so‘zlarni aytib berdi. So‘ng
Dovudni Shoulning yoniga boshlab bordi. Dovud esa ilgarigiday shohga xizmat qilishni
davom ettirdi.
8 Shu orada yana urush alanga oldi. Dovud urushga ketdi, u Filistlar bilan jang qilib,
ularga shunday qattiq zarba berdiki, oxiri Filistlar Dovudning oldiga tushib qochib
qolishdi.
9 Bir kuni Shoul, nayzasi qo‘lida, uyida o‘tirardi, Dovud esa lira chalayotgan edi. Shu
payt Egamiz yuborgan yovuz ruh Shoulni chulg‘ab oldi. 10 Shoul nayzasi bilan Dovudni
devorga mixlab qo‘ymoqchi bo‘ldi, lekin Dovud chap berib qoldi. Shoulning nayzasi
devorga sanchilib qoldi. O‘sha tun Dovud yana qochib qutuldi.
11 Shoul Dovudni erta tongda tutib o‘ldirmoqchi bo‘ldi, kuzatib turinglar, deb uning
uyiga odamlarini jo‘natdi. Xotini Mixal Dovudga:
— Bu kecha qochib qutulmasangiz, erta tongda sizni o‘ldirishadi, — dedi. 12 Shunday
qilib, Dovudni derazadan chiqarib yubordi. Dovud qochib qutuldi. 13 Mixal butni* olib,
to‘shakka yotqizdi, bosh tomoniga esa echki junidan qilingan yostiq tashladi, ustini
ko‘rpa bilan yopdi. 14 Shoul yuborgan odamlar Dovudni tutib olib ketishga kelishdi.
— Dovud kasal, — dedi Mixal ularga.
15 So‘ng Shoul odamlarini yana jo‘natib:
— Dovudni o‘z ko‘zlaringiz bilan ko‘ringlar, uni to‘shagi bilan bu yerga olib kelinglar,
o‘ldiraman, — deb buyurdi.
16 Shoulning odamlari uyga kirdilar. Qarasalar, to‘shakda but, butning bosh tomonida
echki junidan qilingan yostiq turibdi.
17 — Nimaga meni aldab, g‘animimni qochirib yubording? — deb so‘radi Shoul
Mixaldan.
— Dovud: “Qo‘yib yubor meni, bo‘lmasa, seni o‘ldiraman”, dedi, — deb javob berdi
Mixal.
18 Qochib qutulgan Dovud Ramada yashayotgan Shomuilning yoniga ketdi. Shoul
unga nima qilgan bo‘lsa, hammasini Shomuilga aytib berdi. Keyin Shomuil bilan birga
Noyo‘t mahallasiga borib, o‘sha yerda qoldi. 19 Dovud Ramaning Noyo‘t mahallasida
ekan degan xabar Shoulga yetib keldi. 20 Shoul: “Dovudni tutib kelinglar”, deb
odamlarini o‘sha yerga yubordi. Ular Shomuil boshchiligidagi payg‘ambarlar guruhining
jo‘shib zikr tushayotganini ko‘rishdi. Shu payt Xudoning Ruhi Shoulning odamlarini ham
qamrab oldi va ular ham jo‘shib zikr tushdilar.
21 Shoul bo‘lib o‘tgan voqealarni eshitgach, boshqa odamlarini yubordi. Bu
yuborilganlari ham jo‘shib zikr tushdilar. Shoul uchinchi bor yana odamlarini jo‘natdi,
ular ham jo‘shib zikr tushdilar.
22 Oxiri Shoulning o‘zi Ramaga qarab yo‘l oldi. Saxudagi katta sardoba bo‘yiga borib:
— Shomuil bilan Dovud qayerda? — deb so‘radi.
— Ramadagi Noyo‘t mahallasida, — dedi bittasi.

23 Shoul Ramadagi Noyoʻt mahallasiga ketayotganda, Xudoning Ruhi uni ham qamrab
oldi. Noyoʻtga borguncha yoʻlma–yoʻl joʻshib zikr tushib ketdi. 24 Kiyimlarini yechib
tashlab, Shomuilning oldida ham joʻshib zikr tushdi. Yerga yiqilganicha, bir kecha–
kunduz yalangʻoch ahvolda yotib qoldi. “Nahotki Shoul ham paygʻambar boʻlsa?!”* degan
matal ana shundan qolgan.

20–BOB

Yoʻnatan Dovudga yordam beradi

1 Dovud Ramadagi Noyoʻt mahallasidan qochib, Yoʻnatanning oldiga keldi.
— Men nima qilibman? Aybim nima? Otangga qarshi nima gunoh ish qilibmanki,
meni oʻldirmoqchi boʻladi? — dedi Dovud unga.
2 — Xudo saqlasin, oʻlmaysan! — dedi Yoʻnatan. — Otam meni xabardor qilmay, xoh
muhim boʻlsin, xoh muhim boʻlmasin, biror ish qilmaydi. Nimaga endi buni mendan
yashirsin?! Hech narsa boʻlmaydi.
3 Dovud yana ont ichib dedi:
— Sen meni yaxshi koʻrasan, buni otang ham yaxshi biladi. Yoʻnatan nima qilishimni
bilmay qoʻya qolsin, aks holda, azob chekadi, deb oʻylaydi. Xudo shohid! Toʻgʻrisini
aytsam, jar yoqasida turibman.
4 — Tila tilagingni, sen uchun bajo keltiraman, — dedi Yoʻnatan.
5 — Qara, ertaga yangi oy shodiyonasi boʻladi, — dedi Dovud. — Shoh bilan birga
dasturxonda oʻtirishim kerak*. Lekin menga ijozat ber, indin kechgacha dalada
yashirinib yuray. 6 Agar otang yoʻqligimni sezib qolsa, unga shunday deysan: “Dovud
shoshilinch oʻz shahri Baytlahmga ketadigan boʻlib qoldi, mendan qattiq turib iltimos
qildi. U yerda butun urugʻ–aymogʻi yillik qurbonlik marosimi oʻtkazar ekan.” 7 Otang
“yaxshi” desa, demak, bu qulingga xavf–xatar yoʻq. Agar gʻazablansa, bilginki, menga
zarar yetkazishga qat’iy qaror qilgan. 8 Egamiz oldida ahd qilgansan–ku! Endi menga
sodiq qol. Agar aybdor boʻlsam, meni oʻzing oʻldir! Meni otangning huzuriga olib
borishingga na hojat?!
9 — Xudo saqlasin! — dedi Yoʻnatan, — otam senga yomonlik qilmoqchi boʻlganini
bilganimda, senga aytmasmidim?!
10 — Otang senga dagʻal javob bersa, kim menga bildiradi? — deb soʻradi Dovud.
11 — Yur, dalaga chiqaylik, — dedi Yoʻnatan.
Ikkovlari dalaga ketishdi. 12 Yoʻnatan gapida davom etib, Dovudga dedi:
— Isroil xalqining Xudosi — Egamiz shohid boʻlsin! Erta yo indinga xuddi shu
vaqtgacha otamning niyatini oʻsmoqchilab bilib olaman. Otam senga moyillik bildirsa,
albatta xabar yuboraman. 13 Bordi–yu, otam seni oʻldirmoqni niyat qilgan boʻlsa–yu, seni
xabardor qilmasam, bexatar ketishingni ta’minlamasam, Egam meni yomon koʻyga
solsin, hatto undan ham battarrogʻini qilsin! Egam, ilgari otam bilan boʻlganiday, doimo
sen bilan boʻlsin. 14 Agar men tirik boʻlsam, Egamizga oʻxshab va’dangda tur, menga
sodiq boʻl. Agar oʻlsam, 15 Egamiz dushmanlaringni yoʻq qilganda, mening
xonadonimdan sadoqatingni darigʻ tutmagin.
16 Yoʻnatan Dovud xonadoni bilan ahd tuzdi va:
— Egamiz hamma dushmanlaringni qirib tashlasin, — dedi.
17 Yoʻnatan Dovudni jonidan ham ortiq yaxshi koʻrardi. U: “Menga boʻlgan doʻstona

sevgingni tasdiqlagin”, deb Dovudga yana bir bor ont ichirdi.
18 — Ertaga yangi oy shodiyonasi bo‘ladi, — dedi Yo‘natan Dovudga. — O‘rning bo‘sh
qoladi, yo‘qliging bilinadi. 19 Indinga darhol pastga tush, oldingi safar yashiringan
joyingga borib yashirin. Ezel degan toshning yonida kutib tur. 20 Men mo‘ljallab o‘sha
tosh tomonga uchta o‘q otaman. 21 Keyin xizmatkorimni: “Bor, o‘qlarni topib kel”, deb
jo‘nataman. Agar unga: “Qara, o‘qlar orqangda, ularni olib bu yoqqa qayt”, deb aytsam,
sen uyingga qaytib borgin. Demak, hech qanday xavf–xatar yo‘q. Xudo shohid, sen tinch–
omon bo‘lasan. 22 Agar xizmatkorimga: “Qara, o‘qlar oldingda”, desam, sen ketgin.
Demak, Egamiz ketishingni xohlagan bo‘ladi. 23 Bir–birimizga qilgan ahdimizga Egamiz
abadiy shohid bo‘lsin.
24 Shunday qilib, Dovud dalada yashirinib oldi. Yangi oy chiqqani munosabati bilan
bayram boshlanganda, shoh Shoul kelib, bayram dasturxoniga o‘tirdi. 25 U odatdagiday,
devor yonidagi o‘rindiqdan joy oldi. Yo‘natan Shoulning ro‘parasidan*, Abnur esa uning
yonidan o‘z joylarini egallashdi. Dovudning o‘rni bo‘sh qoldi. 26 Ammo Shoul o‘sha kuni
hech narsa demadi. Biror tasodif bo‘lsa kerak, Dovud harom bo‘lgan–u, yuvinmagandir*,
deb o‘yladi. 27 Ertasiga, yangi oy shodiyonasining ikkinchi kuni Dovudning joyi yana
bo‘sh qoldi. Shoul o‘g‘li Yo‘natandan so‘radi:
— Essayning o‘g‘li nimaga kecha ham, bugun ham taomga kelmadi?
28 — Dovud Baytlahmga ketmoqchi ekan, mendan qattiq iltimos qildi, — deb javob
berdi u. 29 — “Iltimos, ijozat bersang, oilamiz o‘sha shaharda qurbonlik qiladi. Akam,
o‘sha yerda bo‘l, deb buyurdi. Menga iltifot ko‘rsatsang, borib, akalarimni ko‘rib
kelsam”, dedi. Shu vajdan shohning dasturxoniga kela olmadi.
30 Shoul g‘azablanib, Yo‘natanga baqirdi:
— Sen, yaramas, suyuqoyoq xotinning bolasi, u bilan do‘stlashganingni
bilmasmidim?! Bu qilig‘ing bilan o‘zingni ham, seni tuqqan onangni ham isnodga
qoldirding–ku. 31 Essayning o‘g‘li yer yuzida yashar ekan, na o‘zing, na shohliging
saqlanib qoladi. Endi birorta odamni jo‘natib, uni mening oldimga chaqirtirib kel. Uni
o‘lim kutyapti.
32 — Nega u o‘ldirilar ekan? U nima qildi? — dedi Yo‘natan otasiga.
33 Shoul Yo‘natanni o‘ldirmoqqa shaylanib, nayzasini unga qaratib otdi. Yo‘natan
tushundiki, otasi Dovudni o‘ldirmoqqa qat’iy qaror qilgan ekan. 34 Yo‘natan darg‘azab
bo‘lib dasturxondan turdi, yangi oy shodiyonasining ikkinchi kuni hech narsa yemadi.
Otasi Dovudni bu qadar haqorat qilganiga xafa bo‘ldi.
35 Ertalab Yo‘natan Dovud bilan ko‘rishmoq uchun dalaga ketdi. Yoniga bir kichkina
bolani oldi. 36 Yo‘natan bolaga:
— Yugur, men otgan o‘qlarni qidir! — dedi.
Bola yugurib ketdi. Yo‘natan bolaning old tomoniga bir o‘q otdi. 37 Yo‘natanning o‘qi
tushgan yerga bola yetib borgan ham ediki, u:
— O‘q oldingda! 38 Tez bo‘l, yugur, to‘xtab turma! — deb ovoz berdi. Bola o‘qni olib,
xo‘jayiniga keltirib berdi. 39 Bola bundan bexabar, bu gapning ma’nosi Yo‘natan bilan
Dovudga ayon edi, xolos. 40 Yo‘natan qurol–aslahalarini o‘sha bolaga berib:
— Ko‘tar bularni, shaharga olib bor, — dedi.
41 Bola ketishi bilanoq, Dovud tosh orqasidan chiqib keldi va yuzi bilan yerga muk
tushib, uch marta ta’zim qildi. Ikkala do‘st bir–birlarini quchoqlab, o‘pib, yig‘lashdi.
Dovud Yo‘natanga qaraganda qattiqroq yig‘ladi. 42 Nihoyat Yo‘natan:

— Endi eson–omon yo‘lingga ket, — dedi. — Ikkovimiz: “Xudo senu mening oramizda, urug‘larimiz orasida abadiy shohid bo‘lsin”, deb Uning nomini o‘rtaga qo‘yib ont ichganmiz.

43 Shundan keyin Dovud o‘z yo‘liga ketdi. Yo‘natan esa shaharga qaytdi.

21–BOB

Dovud Shouldan qochib yuradi

1 Dovud Nav shahridagi* ruhoniy Oximalekning huzuriga bordi. Oximalek Dovudni kutib olarkan:

— Nimaga yolg‘izsan? Nega yoningda hech kim yo‘q? — deb qo‘rquv ichra so‘radi.

2 — Shoh menga bir topshiriq berdi, — dedi Dovud. — Senga bergan topshirig‘imni hech kim bilmasin, dedi. Shuning uchun odamlarimga, falon joyga borib turinglar, deb tayinlab keldim. 3 Hozir yeyishga biror narsangiz bormi? Menga beshta non, yoki qo‘lingizga nima ilinsa, bering.

4 — Oddiy nonimiz yo‘q, — deb javob berdi ruhoniy, — agar odamlaring ayollardan o‘zlarini tiygan bo‘lishsa*, nazr qilingan nonimiz* bor.

5 — Yo‘lga chiqqanimizdan buyon ayollarga yaqinlashganimiz yo‘q, — dedi Dovud. — Safarimizning maqsadi oddiy bo‘lganda ham, odamlarim o‘zlarini pok tutadi. Ayniqsa, bu safarimizda odamlarim o‘zlarini juda pok tutdilar.

6 Shundan keyin ruhoniy unga muqaddas non berdi. Bu yerda Xudoga bag‘ishlangan nondan boshqa non yo‘q edi. Bu non, Egamizning huzurida turgandan keyin, issiq non keltirilgan kuni olib qo‘yilgandi. 7 O‘sha kuni Shoulning Doyeg degan xizmatkori ham shu yerda edi. U Edomlik* bo‘lib, Shoulning bosh cho‘ponи edi. Doyeg rasm–rusumlarni ado etgani Egamiz huzuriga kelgandi.

8 — Yoningizda nayza yoki qilich yo‘qmi? — deb so‘radi Dovud Oximalekdan. — Shohning topshirig‘i shoshilinch bo‘lgani uchun o‘zim bilan na qilichimni olibman, na boshqa qurolimni.

9 — Elox vodiysida o‘zing o‘ldirgan Filist Go‘liyotning qilichi bor, — dedi ruhoniy. — Efod orqasida matoga o‘rog‘liq turibdi. Bu yerda boshqa qurol yo‘q. Xohlasang, o‘shani olaver.

— O‘sha qilichni menga bera qoling, unaqasi topilmaydi, — dedi Dovud.

10 Dovud Shouldan qochib, o‘sha kuni Gat* shohi Oxishning huzuriga bordi.
11 Oxishning xizmatkorlari:

— Bu Isroil shohi Dovud–ku! — deyishdi. — Odamlar: “Shoul minglarchasini o‘ldirdi, Dovud esa o‘n minglarchasini”, deb o‘ynab qo‘shiq aytgan edi–ku.

12 Bu gaplar Dovudni cho‘chitib qo‘ydi. U Gat shohi Oxishdan juda qo‘rqardi. 13 Dovud ularning ko‘z o‘ngida qiyofasini o‘zgartirdi, ularning oldida o‘zini telbalikka solar, saroy darvozasini timdalab, so‘laklarini soqoliga oqizardi. 14 Oxish xizmatkorlariga dedi:

— Qaranglar bu odamga! Jinnining o‘zi–ku! Nimaga uni mening huzurimga olib keldingizlar? 15 Mening oldimda jinnilik qilsin deb uni olib keldingizlarmi? Menga jinnilar kerakmidi?! Shu odamning saroyimga kirishi shartmi?!

22–BOB

Shoul Nav shahridagi ruhoniylarni o‘ldiradi

1 Shundan so‘ng Dovud u yerdan chiqib, Adullam shahri* yaqinidagi g‘orga qarab
qochdi. Akalari va jamiki ota xonadoni bu haqda eshitib, o‘sha yoqqa — Dovudning
yoniga borishdi. 2 Ezilgan, qarzini to‘lashga qurbi yetmagan, norozi odamlar Dovudning
atrofiga to‘planishdi. Dovud ularga bosh bo‘ldi. Unga ergashganlar to‘rt yuztacha edi.
3 Dovud u yerdan Mo‘abdagi* Mispax shahriga borib, Mo‘ab shohidan iltimos qildi:
“Ijozat bering, Xudo meni nima qilmoqchiligi ma’lum bo‘lguncha, ota–onam yoningizda
qolsin.” 4 Shunday qilib, Dovud ota–onasini Mo‘ab shohi huzuriga olib keldi. Dovud
adirlardagi qarorgohida yashirinib turganda, ota–onasi Mo‘ab shohining panohida
yashadilar. 5 Lekin Dovudga Gad payg‘ambar: “U yerda qolma, Yahudo yeriga bor”, dedi.
Shundan keyin Dovud u yerdan chiqib, Xoret o‘rmoniga bordi. 6 Shu orada Shoul “Dovud
va uning odamlari topildi”, deb eshitdi. Shoul qo‘lida nayzasini ushlaganicha, Givo*
tepaligidagi yulg‘un daraxti* ostida o‘tirgan edi. Barcha a’yonlari ham uning atrofida
turgan edilar. 7 Shoul ularga shunday dedi:

— Ey Benyamin odamlari, eshitib olinglar! Essayning o‘g‘li* har biringizga dalayu
uzumzorlarni berib qo‘ymaydi–ku! Har biringizni mingboshi yoki yuzboshi qilib
o‘tiradimi?!* 8 Hammangiz menga qarshi til biriktirdingiz–ku! O‘g‘lim Yo‘natan
Essayning o‘sha o‘g‘li bilan ahd qilgan ekan, meni hech kim xabardor etmadi.
Orangizdan menga yon bosadigan biror odam chiqmadi. Dovud menga pistirma
qo‘ymoqchi ekan, uni o‘g‘lim qayrabdi. Hozir shu ish bo‘ldi–ku! Shunday emasmi?!

9 Shu payt Shoulning a’yonlari yonida turgan Edomlik* Doyeg aytdi:

— Essayning o‘g‘li Dovudni ko‘rdim, u Nav shahridagi Oxitobning o‘g‘li ruhoniy
Oximalekning yoniga kelgan edi. 10 Oximalek “Dovud nima qilsin?” deb Egamizning
xohish–irodasini so‘radi*. Unga ham oziq–ovqat berdi, ham Filist Go‘liyotning qilichini
taqdim qildi.

11 Shoh Shoul a’yonlariga: “Oxitobning o‘g‘li ruhoniy Oximalekni va uning Navda
yashaydigan ota urug‘larining hammasini — barcha ruhoniylarni olib kelinglar”, deb
buyurdi. Hammalarini shohning oldiga olib kelishdi.

12 — Ey Oxitobning o‘g‘li, gaplarimni eshit! — dedi Shoul Oximalekka.

— Labbay, hazratim, — dedi Oximalek.

13 — Nimaga sen Essayning o‘g‘li bilan birga menga qarshi til biriktirding? — dedi
Shoul. — Dovudga non, qilich beribsan, uning uchun Xudoning xohish–irodasini
so‘rabsan. Mana bugun Dovud menga qarshi qo‘zg‘alib, pistirmada poylab turibdi.

14 Oximalek shunday javob berdi:

— Butun a’yonlaringiz orasida Dovud singari, ishonchli kim bor?! Dovud — sizning
kuyovingiz, soqchilaringizning sardori, xonadoningizda hurmatli kishi–ku. 15 To‘g‘ri,
o‘sha kuni Dovud uchun Xudoning xohish–irodasini so‘radim. Ammo bu birinchi marta
emas edi–ku! Shoh meni va ota xonadonimni ayblamasinlar, chunki men Dovudning
yomon niyatidan bexabar edim.

16 — Ey Oximalek, o‘zing ham, butun ota xonadoning ham albatta o‘lasizlar! — dedi
Shoul. 17 So‘ng u yonida turgan qo‘riqchilariga buyurdi:

— Qani, Dovudni qo‘llagan Egamizning ruhoniylarini o‘ldirib tashlanglar! Ular
Dovudning qochib ketganini bilganlari holda, menga xabar berishmadi.

Shohning qo‘riqchilari qo‘l ko‘tarib, Egamizning ruhoniylarini o‘ldirishni istashmadi.
18 Shunda shoh Shoul Doyegga:
— Sen bor, ruhoniylarni o‘ldir! — deb buyurdi.
O‘sha kuni Edomlik Doyeg muqaddas libos* kiygan sakson besh ruhoniyni bir o‘zi chopib o‘ldirdi. 19 So‘ngra erkak–ayol, yosh bola, hatto chaqaloq demasdan, ruhoniylar yashaydigan Nav shahrining xalqini ham qilichdan o‘tkazdi. Mollari, eshaklari, qo‘ylarini ham chopib tashladi. 20 Ruhoniy Oximalekning o‘g‘illaridan birgina Abuatar degani tirik qolib, Dovudning yoniga qochib ketdi. 21 Shoul Egamizning ruhoniylarini o‘ldirganini Abuatar Dovudga aytib berdi. 22 Dovud Abuatarga dedi:
— O‘sha kuni u yerda Edomlik Doyeg bor edi. U albatta Shoulga xabar berishini bilardim. Otang xonadonidagi har bir jonning o‘limiga men sababchi bo‘ldim. 23 Endi sen yonimda qol, qo‘rqma. Mening jonim payiga tushgan kimsa — sening ham joning payiga tushgan. Yonimda qolsang, bexatar bo‘lasan.

23–BOB

Dovud Keylax shahrini ozod qiladi

1 Dovudga: “Filistlar Keylax shahriga* hujum qilib, hosilni talon–taroj qilyapti”, deb xabar berishdi.
2 — Borib o‘sha Filistlar bilan urishaymi? — deb Egamizdan so‘radi* Dovud.
— Bor, Filistlar bilan urishib, Keylax shahrini xalos et, — dedi Egamiz. 3 Lekin Dovudning odamlari:
— Biz shu yerda — Yahudoda qo‘rqib o‘tiribmiz–u, Keylaxga* borib, Filist lashkariga qarshi urishmoqqa bizda jur’at bormidi?! — deyishdi. 4 Dovud yana Egamizdan Uning xohish–irodasini so‘radi.
— Otlan, Keylaxga bor! Filistlarni O‘zim sening qo‘lingga beraman, — dedi unga Egamiz.
5 Dovud odamlari bilan Keylaxga borib, Filistlarga qarshi urush qildi. Dovud Filistlarning mol–holini tortib oldi. Ularga og‘ir talafot yetkazdi. Shunday qilib, Keylax xalqini qutqardi. 6 Oximalekning o‘g‘li Abuatar Keylaxda turgan Dovudning yoniga qochib, o‘zi bilan efodni ham olib ketgan edi. 7 Shoul Dovudning Keylax shahriga ketganini eshitib: “Xudo Dovudni qo‘limga berdi, o‘sha shahar darvozalarining tambalari bor, u shaharga kirib o‘zini o‘zi tutib berdi”, dedi.
8 Shoul Dovudni va uning odamlarini qamalga olish maqsadida butun lashkarini urushga da’vat etib, Keylaxga yurish qildi. 9 Dovud Shoulning qabih niyatini eshitib, ruhoniy Abuatarga:
— Efodni bu yerga olib kel, Egamizning xohish–irodasini bilaylik, — dedi. 10 So‘ng Xudoga shunday deb iltijo qildi:
— Ey Isroil xalqining Xudosi — Egamiz! Aniq xabar eshitdim: Shoul Keylaxga kelib, shu quling sababli shaharni vayron qilmoqchi ekan. 11 Keylaxliklar meni Shoulning qo‘liga tutib beradimi? Bu qulingning eshitganlari rostmi, Shoul bu yerga keladimi? Ey Isroil xalqining Xudosi — Egamiz, o‘tinib so‘rayman, bu qulingga ayon et!
— Shoul keladi, — dedi Egamiz.
12 — Keylaxliklar meni va odamlarimni Shoulning qo‘liga tutib beradimi? — deb so‘radi Dovud.

— Tutib beradi, — dedi Egamiz.
13 Shu onda Dovud bilan yonidagi olti yuztacha odam Keylaxdan chiqib, bir joydan
boshqa joyga koʻchib yuraverishdi. Dovud Keylaxdan qochib ketibdi degan xabarni
eshitgan Shoul u yerga bormaydigan boʻldi.

Dovud choʻlda

14 Dovud adirlardagi pana joylarda — Zif choʻlidagi* qirlarda makon qilardi. Shoul
Dovudni muttasil taʼqib qildi, lekin Xudo uni Shoulning qoʻliga bermadi. 15 Bir payt
Dovud Zif choʻlidagi Xoreshda turganda, Shoul uni oʻldirgani yoʻlga chiqqani haqida
xabar eshitdi.
16 Shu paytda Shoulning oʻgʻli Yoʻnatan Xoreshda turgan Dovudning oldiga bordi va
“Xudo seni saqlaydi”, deb uni ruhlantirdi.
17 — Qoʻrqma, — dedi Yoʻnatan unga, — otam Shoul seni topa olmaydi. Sen Isroil
shohi boʻlasan, men esa sendan keyingi odam boʻlaman. Otam Shoul ham shuni biladi.
18 Ikkovi Egamiz oldida ahd qilishdi. Dovud Xoreshda qoldi, Yoʻnatan esa uyiga ketdi.
19 Bir necha Zifliklar Givoga borib, Shoulga xabar berdilar:
— Dovud hududimizdagi Xoresh degan joyda yashirinib yuribdi. Bu joy
Yishmonning* janubidagi Xaxilo adirlarida joylashgan. 20 Ey shoh hazratlari, boravering.
Biz albatta Dovudni shohning qoʻliga tutib beramiz.
21 — Sizlar menga qayishar ekansiz, Xudo sizlarni yorlaqasin! — dedi Shoul. 22 —
Borib, yana bir marta tekshirib chiqinglar, Dovud qayerlarda yashirinib yurganini, oʻsha
yerda uni kimlar koʻrganini yaxshilab surishtiringlar. Aytishlaricha, u juda ayyor ekan.
23 Hamma yashiringan joylarini bilib olib, keyin menga aniq xabar keltiringlar. Oʻshanda
men sizlar bilan boraman. Agar Dovud oʻsha yerda boʻlsa, uni butun Yahudo urugʻlari
orasidan qidirib topaman.
24 Shunday qilib, Zifliklar yoʻlga tushib, Shouldan oldin Zifga kelishdi. U paytda
Dovud odamlari bilan Yishmonning janubidagi Moyun choʻlining* kimsasiz bir vodiysida
edilar. 25 Shoul ham odamlari bilan Dovudni izlashga chiqdi. Dovud Shoulning
kelayotganini eshitgach, Moyun choʻlining qoyalik joyiga borib yashirindi. Shoul buni
bilib qolib, Dovudning orqasidan ketdi.
26 Shoul qirning bir tomonidan, Dovud bilan uning odamlari esa qirning boshqa
tomonidan borishardi. Dovud tezda Shouldan qochib qutulmoqchi edi. Shoul esa
sipohlari bilan Dovud odamlarining yoʻlini toʻsmoqchi boʻlib, oʻrab olayotgan edi.
27 Xuddi shu payt bir xabarchi kelib Shoulga:
— Tezroq yuring! Filistlar yurtimizga yopirildi, — deb qoldi.
28 Shoul Dovudni taʼqib qilish oʻrniga, Filistlar bilan jang qilgani qaytib ketdi. Shuning
uchun oʻsha yerga “Qutulish qoyasi”* deb nom berildi.

24–BOB

Dovud Shoulning joniga qasd qilmaydi

1 Dovud u joylarni ham tark etib, En–Gedidagi pana joylarda* yashay boshladi.
2 Shoul Filistlarni quvlab yuborib qaytib kelgach, Dovud En–Gedi yonidagi dasht–
choʻllarda yuribdi degan xabarni eshitdi. 3 Shoul odamlari bilan Dovudni qidirmoqqa
otlandi. Isroilning eng sara sipohlaridan uch mingtasini tanlab olib, qoyalari va yovvoyi
echkilari bilan mashhur boʻlgan joyga ketishdi.

4 Yo‘lda qo‘y qo‘rasi bo‘lib, uning yaqinida bir g‘or bor edi. Shoul ehtiyojini
qondirmoqchi bo‘lib g‘orga kirdi. G‘orning eng ichkarisida esa Dovud odamlari bilan
o‘tirgan edi. 5 Odamlari Dovudga aytdilar:
— Egamiz senga: “G‘animingni qo‘lingga beraman, unga bilganingni qilaver”, degan
edi. O‘sha kun shu bugundir!
Dovud sekin borib, Shoulning ridosi etagidan bilintirmay bir parcha kesib oldi.
6 Lekin Shoulning etagidan bir parcha kesib olgani uchun yuragida o‘kinch paydo bo‘ldi.
7 Keyin odamlariga dedi:
— Xudo saqlasin! Men Egamiz moy surtib tanlagan shohga — janobi oliylariga
bunday qilolmayman. Unga qarshi qo‘limni ko‘tarmayman, chunki u Egamizning moy
surtib tanlaganidir.
8 Dovud shunday deb odamlariga tanbeh berdi, Shoulga tegishlariga ijozat bermadi.
Shoul g‘ordan chiqib, yo‘liga ketdi. 9 Uning ortidan Dovud ham g‘ordan chiqdi–da:
— Shoh hazratlari! — deb Shoulni chaqirdi. Shoul orqasiga o‘girildi, Dovud egilib
ta’zim qildi va yer o‘pib 10 dedi:
— Dovud senga yomonlik qilmoqchi degan odamlarning gaplariga nima uchun quloq
solyapsiz? 11 O‘z ko‘zingiz bilan ko‘rib turibsizki, hozir Egamiz g‘orda sizni qo‘limga
bergan edi. Odamlarim sizni o‘ldirmoqchi bo‘lishgan edi, lekin mening ko‘zim qiymadi,
“Janoblariga qo‘l tekkizmayman, chunki u Egamizning moy surtib tanlaganidir”, dedim.
12 Qarang, ey otam! Qo‘limdagi manavi parchaga qarang! Ridoingizning etagidan kesib
oldim. Ridoingizdan bir parchani kesib oldim–u, lekin sizni o‘ldirmadim. Ko‘nglimda
yomonlik va makkorlikdan asar yo‘qligini yaxshi bilib oling. Men sizga gunoh
qilmaganman–u, siz esa mening jonimga qasd qilish payiga tushgansiz. 13 Xudoga
soldim, men uchun U sizdan o‘ch olsin. Men sizga qo‘l ko‘tarmayman. 14 Eskilar:
“Yomonlik yomon odamlardan kelar”, deyishgan, shunga ko‘ra, men sizga qo‘limni
ko‘tarmayman. 15 Isroil shohi kimning payiga tushgan, axir? Siz kimni ta’qib qilyapsiz?
O‘lgan itday yoki burgaday arzimas bo‘lgan menimi? 16 Xudoga soldim, qay birimizning
haq ekanimizni Xudo hukm qilsin, dodimni O‘zi eshitsin. Egamiz mening yo‘limni berib,
sizning qo‘lingizdan xalos etsin.
17 Dovud gapini tugatgan ham ediki, Shoul:
— Dovud, o‘g‘lim, bu sening ovozingmi? — dedi–yu, uvvos solib yig‘lay boshladi.
18 — Sen haqsan, men noto‘g‘ri qildim, — dedi Shoul Dovudga. — Sen menga
yaxshilik qilgan eding, men yomonlik bilan javob qaytardim. 19 Bugun menga bo‘lgan
munosabatingni aniq–ravshan isbotlading. Egamiz meni sening qo‘lingga beribdi–yu,
lekin sen meni o‘ldirmabsan. 20 Qaniydi, hammayam senga o‘xshab dushmanini tutib
olganda, oq yo‘l tilab qo‘yib yuboraversa?! Bugun menga qilgan yaxshiliging uchun
senga Egamizdan qaytsin! 21 Endi men anglab yetdim: sen albatta shoh bo‘lasan, Isroil
shohligi sening qo‘lingda mustahkam bo‘ladi. 22 Endi menga, sizdan keyin avlodingizni
yo‘q qilmayman, otangiz xonadonidan nomingizni o‘chirmayman, deb Egamiz oldida ont
ich.
23 Dovud Shoulning oldida ont ichdi. Shundan so‘ng Shoul uyiga qaytib ketdi. Dovud
esa odamlari bilan adirlardagi qarorgohiga qaytdi.

25–BOB

Shomuilning oʻlimi

1 Shu orada Shomuil olamdan oʻtdi. Butun Isroil xalqi yigʻilishib, Shomuilga aza tutdi.
Uni oʻz ona shahri Ramada dafn qilishdi.

Dovud va Obigayl

Shundan keyin Dovud Poron choʻliga ketdi. 2 Moyun shahrida bir boy–badavlat odam
yashar, mol–mulki Karmil shahri* yaqinidagi yerda boʻlib, uch mingta qoʻyi, mingta
echkisi bor edi. Bu paytda u Karmilda qoʻylarining junini qirqayotgan edi. 3 Oʻsha
odamning ismi Navol, xotinining ismi esa Obigayl edi. Ayol aql–farosatli va chiroyli edi.
Eri Xolib urugʻidan boʻlib, qoʻrs, feʼl–atvori yomon odam edi.

4 Dovud dashtda yurganda, Navol qoʻylarining junini qirqyapti degan xabarni eshitib
qoldi. 5 Dovud yigitlaridan oʻntasini Karmilga — Navolning huzuriga joʻnatayotib, ularga
dedi:

6 — Navolga mendan salom aytib, shu gaplarimni yetkazinglar: “Umring uzoq
boʻlsin! Senga, xonadoningga, qaramogʻingdagi har bir odamga tinchlik–omonlik boʻlsin.
7 Qoʻylaringning junini qirqayotganingni eshitdim. Choʻponlaring biz bilan birga edi.
Ularni xafa qilmadik, Karmilda boʻlgan kunlarida hech narsasi yoʻqolmadi.
8 Xizmatkorlaringdan soʻrab koʻrsang, oʻzlari ham senga aytib berishadi. Shuning uchun
odamlarimga iltifot koʻrsat, sening huzuringga ziyofat kuni* keldik. Bu qullaringga va
oʻgʻling Dovudga qoʻlingdan kelgancha marhamat qilib, yordam koʻrsat.”

9 Dovudning odamlari Navol huzuriga borib, Dovudning nomidan unga shu gaplarni
yetkazishdi va javob kuta boshlashdi. 10 Navol esa Dovudning odamlariga shunday javob
berdi:

— Dovud degani kim oʻzi?! Essayning oʻgʻli boʻlsa, nima qipti?! Shu kunlarda oʻz
xoʻjayinlaridan qochib ketayotgan qullar juda koʻpayib ketdi–da! 11 Nonimni, suvimni,
jun qirqayotgan odamlarim uchun soʻygan qoʻylarimning goʻshtini olib, allaqaydan
kelgan odamlarga beraymi?!

12 Dovudning odamlari kelgan yoʻliga qaytib ketishdi. Navolning hamma aytganlarini
Dovudga yetkazishdi.

13 — Hamma qilichini beliga bogʻlasin! — deb amr berdi Dovud odamlariga.
Dovudning oʻzi ham, odamlari ham qilichlarini bellariga bogʻlashdi. Toʻrt yuzga yaqin
odam Dovud bilan birga ketdi. Ikki yuztasi esa anjomlar yonida qoldi.

14 Navolning xizmatkorlaridan biri uning xotini Obigaylga dedi:

— Dovud xoʻjayinimiz Navolga salom yoʻllab, dashtdan xabarchilar joʻnatgan ekan,
lekin Navol ularni haqorat qildi. 15 U odamlar esa bizga koʻp yaxshi munosabatda
boʻlishgan edi. Dashtda ular bilan qolgan paytlarimizda bizni hech xafa qilishmasdi,
biror narsamiz ham yoʻqolmasdi. 16 Qoʻylarimizni boqib yurganimizda, har doim —
kechayu kunduz bizni himoya qilishardi. 17 Endi nima qilish lozimligini oʻzingiz
yaxshilab oʻylang. Chunki xoʻjayinimizning va uning butun xonadonining boshiga falokat
xavf solib turibdi. Xoʻjayinimiz esa shu qadar badjahlki, biror kimsa unga bir ogʻiz gap
ayta olmaydi.

18 Obigayl vaqtni boy bermay, ikki yuzta non, ikki mesh sharob, beshta qoʻyning
pishirilgan goʻshtini, ikki togʻora* qovurilgan bugʻdoy, yuz hovuch mayiz va ikki yuz

hovuch anjir qoqini* olib eshaklarga yukladi. 19 So‘ng xizmatkorlariga:
— Sizlar mendan oldin yuringlar, men orqalaringizdan boraman, — dedi. Eri Navolga esa hech narsa demadi. 20 Obigayl eshakka minib, tog‘ning yolg‘izoyoq yo‘llaridan tushib kelayotganda, unga tomon kelayotgan Dovudning odamlariga duch kelib qoldi. 21 Dovud shu gaplarni aytayotgan ekan:
— Bu odamning dashtdagi mol–holini behudaga qo‘riqlabman–da. Uning qo‘tonidan biror qo‘y yo‘qolmadi–yu, oqibatda u mening yaxshiligimga yomonlik bilan javob qaytardi. 22 Agar ertalabgacha unga qarashli erkak zotidan birortasini tirik qoldirsam, Xudo mening jazoimni bersin*, hatto undan battarrog‘iga duchor qilsin!
23 Obigayl Dovudni ko‘riboq eshakdan tushdi. Dovudga ta’zim qilib, yerga muk tushdi. 24 Uning oyoqlariga bosh urib yolvordi:
— To‘ram, men aybdorman, ayb menda. Ijozat bering, bu cho‘ringiz sizga bir og‘iz gap aytsin, aytganlarimga quloq soling. 25 Yolvoraman, to‘ram! O‘sha battol Navolga e’tibor bermasinlar. Uning fe’l–atvori xuddi ismining o‘zi. Navol — aqlsiz degani. Men, cho‘ringiz, to‘ram yuborgan odamlarni ko‘rmabman. 26 Endi, to‘ram, Egamiz sizning qon to‘kishingizga, o‘z qo‘lingiz bilan qasos olmog‘ingizga izn bermagan. Xudo shohid! To‘g‘risini aytay, g‘animlaringiz, qolaversa, to‘ramga qasd qilgan hammaning boshiga Navolning kuni tushsin. 27 To‘ram, men, cho‘ringiz, sizga mana bu in’omlarni keltirdim. Endi bular sizga ergashib xizmat qilayotgan odamlaringizga berilsin. 28 Bu cho‘ringizning gunohidan o‘ting. Egamiz albatta to‘ramning xonadonini mustahkam qiladi, chunki to‘ram Egamiz uchun jang qilyapti. Umringiz oxirigacha siz tomondan biron–bir haqsizlik bo‘lmasin. 29 Birontasi ortingizdan tushib, joningizga qasd qilsa, hayotingizni Egangiz Xudo O‘z panohida asrasin. G‘animlaringizni esa palaxmondan otilgan toshday uloqtirib yuborsin. 30 Egamiz to‘ramga va’da qilgan barcha ezguliklarni bajo keltirib, sizni Isroilning yo‘lboshchisi qiladigan kun keladi, albatta. 31 O‘shanda o‘zim uchun o‘ch olib, behudaga qon to‘kdim, deb pushaymon bo‘lmagaysiz. Egamiz to‘ramga baraka berganda, bu cho‘risini unutmasin.
32 — Bugun seni men bilan uchrashtirgan Isroil xalqining Xudosi — Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin! — dedi Dovud. 33 — Aqlingga balli, baraka top! Bugun meni qon to‘kishdan, o‘z qo‘lim bilan o‘ch olishdan saqlab qolding, buning uchun seni Xudo yorlaqasin. 34 Isroil xalqining Xudosi — Egamiz senga yomonlik qilishimning oldini oldi. Agar sen meni tezda uchratib qolmaganingda, Xudo haqi, kun chiqquncha Navolga qarashli erkak zotidan birortasi tirik qolmagan bo‘lardi!
35 Dovud Obigayl olib kelgan hadyalarni oldi. Keyin:
— Eson–omon uyingga bor, bilib qo‘y, gaplaringga quloq solib, arzingga e’tibor berdim, — dedi.
36 Obigayl Navolning yoniga qaytib keldi. Navol uyida shohona ziyofat uyushtirgan, mast, juda vaqti chog‘ edi. Obigayl esa ertalabgacha unga bir og‘iz gap aytmadi.
37 Ertasiga ertalab Navol o‘ziga kelgach, xotini unga bo‘lib o‘tgan voqealarni aytib berdi. O‘sha zahotiyoq Navolning yuragi muzlab, shol bo‘lib qoldi. 38 O‘n kunlardan keyin Egamiz Navolning jonini oldi.
39 Xudo Navolning jonini olganini Dovud eshitdi.
— Navol meni haqorat qilgan edi, Egamizning O‘zi meni oqladi, bu qulini yomonlik qilmoqdan asradi. Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin! U Navolning yomonligini o‘zining boshiga solibdi, — dedi.

Shundan so‘ng Dovud Obigaylning oldiga xabarchilar jo‘natib, unga uylanmoqchi ekanligini bildirdi. 40 Dovud yuborgan xabarchilar Karmilga — Obigaylning huzuriga borib:

— Dovudning senga uylanish istagi bor, shuni bildirish uchun bizni yubordi, — dedilar. 41 Obigayl o‘rnidan turdi, boshi yerga tekkuday bo‘lib ta’zim qildi–da:

— Men to‘ramga xizmat qilmoqqa va to‘ramning xizmatkorlari oyoqlarini yuvishga tayyorman, — deb javob berdi. 42 Obigayl tezda o‘rnidan turib, eshakka mindi. Yoniga beshta cho‘risini olib, Dovudning xabarchilari orqasidan yo‘lga tushdi. Shunday qilib, Obigayl Dovudga turmushga chiqdi.

43 Dovud Yizrillik Oxinavamga ham uylangan edi. Shu tariqa Dovud ikki xotinlik bo‘ldi. 44 Dovudning birinchi xotini Mixalni* esa otasi Shoul Paltiga berib yuborgan edi. Palti Galimlik Layish deganning o‘g‘li edi.

26–BOB

Dovud yana Shoulning jonini saqlab qoladi

1 Zifliklar Givoga — Shoulning huzuriga kelib: “Dovud Yishmon* chetidagi Xaxilo tepaligida yashirinib yuribdi”, deb xabar yetkazishdi. 2 Shoul uch mingta saralangan Isroil sipohi bilan Dovudni qidirib Zif dasht–biyoboniga bordi. 3 U Xaxilo tepaligidagi yo‘l bo‘yida qarorgoh qurdi, bu tepalik Yishmon sahrosining chetida edi. Dovud hali ham sahroda yashirinib yurardi. O‘z orqasidan Shoulning tushganini bilib, 4 Dovud ayg‘oqchilar jo‘natdi. Shu tariqa Shoulning shu yerga kelganini aniq bilib oldi.

5 Dovud Shoulning qarorgohi tomon yaqin borib, Shoul bilan lashkarboshi Abnurning uxlayotgan joyini ko‘rdi. Shoul qarorgohning o‘rtasida, sipohlar esa uning atrofida yotgan edilar. 6 Shu payt Dovud Oximalek bilan Abushaydan:

— Kim men bilan qarorgohga — Shoulning yoniga kiradi? — deb so‘radi. Oximalek Xet xalqidan edi. Abushay Zeruyaning* o‘g‘li bo‘lib, Yo‘abning akasi edi.

— Men siz bilan boraman, — dedi Abushay.

7 Dovud bilan Abushay o‘sha kun kechasi qarorgohga kirishdi. Shoul nayzasini bosh tomoniga yerga sanchib qo‘yib, qarorgohning o‘rtasida uxlab yotardi. Abnur bilan sipohlar uning atrofida uxlashardi.

8 — Bugun Xudo g‘animingizni sizning qo‘lingizga berdi, — dedi Abushay Dovudga. — Endi ijozat bering, uni nayza bilan bir urib yerga mixlab qo‘yayin. Ikkinchi marta urishimga hojat qolmaydi.

9 — Yo‘q, uni o‘ldirmaysan, — dedi Dovud, — Egamiz moy surtib tanlagan shohga qo‘l ko‘targanni sira oqlab bo‘lmaydi. 10 Xudo shohid! Shoulni yo Xudo uradi, yo uning kuni bitib olamdan o‘tadi, yoki jangda halok bo‘ladi. 11 Ammo Egamiz moy surtib tanlagan shohga qo‘l ko‘tarishdan meni Xudoning O‘zi saqlasin. Mayli, Shoulning bosh tomonidagi nayza bilan suvdonini olib ketamiz.

12 Dovud Shoulning bosh tomonidagi nayzasi va suvdonini oldi. Keyin u yerdan qaytishdi. Ularni hech kim ko‘rmadi, biror kimsa bo‘lib o‘tgan voqeani bilmay qoldi, hech kim uyg‘onmadi ham. Hamma uxlab yotardi, zotan, Egamiz ularni qattiq uxlatib qo‘ygan edi. 13 Dovud narigi tomonga o‘tib, uzoqroqdagi tepalikning ustiga chiqdi, Shoulning sipohlari bilan uning orasida anchagina masofa bor edi. 14 O‘sha yerdan Abnurni va odamlarini chaqirib:

— Ey Abnur, menga javob ber–chi! — dedi.

— Sen kimsan, nega baqirib shohimizni bezovta qilyapsan? — so‘radi Abnur.

15 — Sen katta odamsan, Abnur, to‘g‘rimi gapim? — dedi Dovud. — Butun Isroilda
senga teng keladigani yo‘q. Shoh hazratlarini bittasi o‘ldirmoqchi bo‘lib, qarorgohga
kirdi, nega shohni muhofaza etmading? 16 Bu qilgan ishing yomon. Xudo haqi, o‘zing
ham, odamlaring ham o‘limga loyiqsizlar, chunki janobi oliylarini — Egamiz moy surtib
tanlagan shohni muhofaza etmadingizlar. Qarab ko‘r–chi, shohning bosh tomonidagi
nayzasi bilan suvdoni qayerda ekan?

17 Shoul Dovudning ovozini tanidi:

— Bu sening ovozingmi, Dovud o‘g‘lim? — deb so‘radi.

— Ha, shoh hazratlari, menman, — javob berdi Dovud. 18 — Janobi oliylari! Men,
qulingizni nega ta’qib qilaverasiz? Men nima qildim? Gunohim nima? 19 Shoh hazratlari!
Marhamat qilib men, qulingizning so‘zlariga quloq soling. Agar sizni menga qarshi
qo‘zg‘atgan Egamiz bo‘lsa, nazr atang, U tinchlansin. Agar bu ishni insonlar qilgan bo‘lsa,
Egamiz oldida la’nati bo‘lsinlar. Chunki ular Egamizning yeridan meni haydab: “Bor,
begona xudolarga xizmat qil*”, deyayotganday bo‘lyapti. 20 Ishqilib, qonim Egamizning
huzuridan uzoq yerlarga to‘kilmasin. Nima uchun, ey shohim, burgaday arzimas bir
insonni ovlashga chiqdingiz?! Nechun, tog‘lardagi kaklikni* ovlaganday, meni ovlab
yuribsiz?!

21 — Gunoh qildim, Dovud o‘g‘lim, beri kel, — dedi Shoul. — Bugun mening hayotim
sen uchun qadrli ekanini bildim. Endi senga sira yomonlik qilmayman. Haqiqatan ham,
nodonlik qildim, qattiq yanglishdim.

22 — Mana shohimizning nayzasi, yigitlaringizdan biri kelib olsin, — dedi Dovud,
23 — Egamiz har bir odamning to‘g‘riligiga va sadoqatiga yarasha mukofot beradi. Bugun
Egamiz sizni qo‘limga bergan bo‘lsa–da, men Egamizning moy surtib tanlaganiga qo‘l
ko‘tarishni istamadim. 24 Bugun sizning hayotingizni saqlaganimday, Egamiz mening
hayotimni ham shunday saqlasin. U meni har qanday balolardan asrasin.

25 — Dovud o‘g‘lim, Xudo seni yorlaqasin, sen albatta buyuk ishlar qilasan, ulug‘
zafarlarga erishasan, — dedi Shoul. Shundan keyin Dovud o‘z yo‘liga ketdi, Shoul esa
uyiga qaytdi.

27–BOB

Dovud Filistlar orasida

1 Dovud: “Bir kun Shoulning qo‘lida nobud bo‘lsam kerak”, deb o‘ylardi. “Yaxshisi,
Filistlar yerlariga qochib qolay. O‘shanda Shoul Isroilning har burchagidan meni qidirib
yurishdan voz kechadi, men ham uning qo‘lidan qutulib qolaman.”

2 Shunday qilib, Dovud va uning yonidagi olti yuz kishi oilalari bilan yo‘lga otlanib,
Gat* shohi Oxish tomoniga o‘tib ketishdi. Shoh Oxish Moyux deganning o‘g‘li edi.
3 Hammalari oilalari bilan birga Gatda — Oxishning yonida joylashishdi. Dovud ham
ikkala xotini — Yizrillik Oxinavam va Karmillik Navolning bevasi Obigayl bilan
joylashdi. 4 Shoul Dovudning Gatga qochib ketganini eshitgach, endi uni axtarmay
qo‘ydi.

5 Dovud Oxishga:

— Agar men, qulingiz, sizning iltifotingizga sazovor bo‘lsam, yon–atrofdagi

shaharlarning biridan menga joy bersangiz, men o‘sha yerda istiqomat qilayin, — dedi. — Qulingizning siz bilan birga shoh shahrida yashashiga hojat yo‘q.

6 Oxish o‘sha kuni Dovudga Zixlax shahrini berdi. O‘shandan buyon Zixlax Yahudo
shohlariga qarashli shahardir. 7 Dovud Filistlar yurtida bir yilu to‘rt oy istiqomat qildi.

8 Dovud odamlari bilan Geshir, Gezer va Omolek xalqlarining yeriga bostirib borardi.
Bu elatlar uzoq zamonlardan beri Shurga va Misr chegarasigacha cho‘zilgan yerlarda
yashab kelishardi. 9 Dovud biror yurtni bosib olsa, erkak, ayol demas, tirik jonni sog‘
qo‘ymasdi. Faqat qo‘y, mol, eshak, tuya va kiyim–kechaklarni o‘lja olib, shoh Oxishning
huzuriga qaytib kelardi. 10 Oxish: “Bugun biron yerga bostirib bordingizlarmi?” deb
so‘rasa, Dovud: “Yahudoning Nagav cho‘lidagi hududlarini bosib oldik”, yoki “Nagav
cho‘lidagi Yaraxmal urug‘i yerlarini bosib oldik”, yoki “Nagav cho‘lidagi Xayin xalqi
yerlarini* qo‘lga oldik”, deb javob berardi. 11 Dovud biror kimsani Gatga olib kelmas,
“Dovud unday qildi, bunday qildi, deb aytmasin” deya, erkagu ayolni tirik qoldirmasdi.
Dovud Filistlar yurtida yashagan paytda shunday qilardi. 12 Oxish Dovudga ishonardi.
“Dovud o‘z xalqi — Isroil xalqiga o‘zini dushman qilib qo‘ydi, bundan keyin to abad
mening xizmatimda qoladi”, deb o‘ylardi.

28–BOB

1 O‘sha kunlarda Filistlar Isroil lashkari bilan urush qilmoqchi bo‘lib, lashkarlarini
to‘plashdi. Oxish Dovudga:

— Bilib qo‘y, sen odamlaring bilan albatta men tomonda jang qilasan, — deb
ta’kidladi.

2 — Men qulingizman, o‘shanda nimalar qilishimni o‘zingiz ko‘rasiz, — dedi Dovud.

— Yaxshi, — dedi Oxish, — sen doimo mening shaxsiy qo‘riqchim bo‘lib qolasan.

Shoul arvohdan maslahat so‘raydi

3 Shomuil olamdan o‘tganda, butun Isroil xalqi unga aza tutgan va uni o‘z shahri
Ramaga dafn qilishgan edi. Shoul esa arvoh chaqiruvchilarni va folbinlarni yurtdan
yo‘qotib yuborgan edi.

4 Shu orada Filistlar to‘planib, Shunam shahriga borib qarorgoh qurishdi. Shoul ham
jamiki Isroil qo‘shinini yig‘ib, Gilbova tog‘ida* qarorgoh qurdi. 5 Shoul Filistlar qo‘shinini
ko‘rdi–yu, qattiq qo‘rqib ketdi, uni vahima bosdi. 6 Shoul “Nima qilay?” deb Egamizning
xohish–irodasini bilmoqchi bo‘lgan edi, U Shoulga na tushida, na ruhoniylar* va na
payg‘ambarlar orqali javob berdi. 7 Shundan keyin Shoul a’yonlariga:

— Menga birorta arvoh chaqiradigan ayolni topib kelinglar, uning oldiga borib
maslahat solayin, — deb farmon berdi.

— En–Do‘rda* bir arvoh chaqiradigan ayol bor, — dedi a’yonlar. 8 Shoul boshqacha
kiyimlar kiyib, qiyofasini o‘zgartirdi va ikki kishini ergashtirib, kech kirganda, o‘sha
ayolnikiga bordi.

— Iltimos qilaman, men uchun ruhlarga maslahat sol, senga kimning nomini aytsam,
o‘sha odamni chaqirib ber, — dedi. 9 Ayol shohga shunday javob berdi:

— Shoul nimalar qilganini, arvoh chaqiradiganlarni va folbinlarni yurtdan yo‘qotib
yuborganini bilasan–ku. Shunday ekan, nimaga meni nobud qilmoq uchun tuzoq
qo‘yyapsan?

10 — Xudo haqi, bundan senga zarracha yomonlik kelmaydi, — deb ont ichdi Shoul.

11 Shundan so‘ng ayol:
— Senga kimni chaqirib berayin? — deb so‘radi.
— Menga Shomuilni chaqirib ber! — dedi Shoul.
12 Ayol Shomuilni ko‘rgach, qattiq baqirib yubordi. So‘ng Shoulga qarab, dedi:
— Siz shoh Shoulsiz–ku! Nega meni aldadingiz?
13 — Qo‘rqma! — dedi shoh ayolga, — nimani ko‘ryapsan?
— Yer ostidan* chiqayotgan bir arvohni ko‘ryapman, — deb javob berdi ayol.
14 — Nimaga o‘xshaydi? — so‘radi Shoul.
— Rido kiygan keksaroq odam yuqoriga chiqyapti, — dedi ayol. Shu zahoti Shoul bildiki, u odam Shomuil. Muk tushib unga ta’zim qildi.
15 — Nimaga meni chaqirib bezovta qilding? — so‘radi Shomuil.
— Men juda qiynalib ketdim, — dedi Shoul. — Filistlar menga hujum qilishmoqchi. Xudo esa meni tark etdi. Menga na payg‘ambarlar orqali, na tushimda javob beryapti. Endi nima qilay, ayting, shunga sizni chaqirgan edim.
16 — Egamiz seni tark etib, senga dushman bo‘lgan ekan, endi nimaga mendan so‘rayapsan? — dedi Shomuil. 17 — Egamiz men orqali aytganini qildi. Shohlikni sening qo‘lingdan tortib olib, Dovudga berdi. 18 Chunki sen Egamizning amriga itoat etmading, Uning alangalangan g‘azabini sen Omolek xalqiga sochmading. Ana shuning uchun Egamiz bugun shu kunlarni boshingga solyapti. 19 U seni ham, Isroil xalqini ham Filistlar qo‘liga beradi. Ertaga sen va o‘g‘illaring mening yonimda bo‘lasizlar*. Egamiz butun Isroil qo‘shinini ham Filistlar qo‘liga topshiradi.
20 Shoul birdan mukkasi bilan yerga tushdi. Shomuilning gaplaridan qattiq qo‘rqib ketdi, sillasi quridi. U bir kecha–kunduz tuz totmagan edi. 21 Ayol Shoulga yaqinlashdi–da, uning qattiq qo‘rqib ketganini ko‘rib shunday dedi:
— Bu cho‘ringiz ham sizning gaplaringizni eshitdi, jonimni xatarga qo‘yib bo‘lsa–da, istagingizni bajo keltirdim. 22 Endi bu cho‘ringizning gaplarini eshiting. Oldingizga ozgina non–pon qo‘yaman, yeysiz. Hali yo‘l yurasiz, non–pon yeb olsangiz, darmon bo‘ladi.
23 — Yemayman! — deb rad etdi Shoul.
Lekin a’yonlari ham, ayol ham uni ko‘ndirishga ko‘p harakat qilishdi. Oxiri, Shoul ularning aytganini qilishga rozi bo‘ldi. Yotgan yeridan turib, to‘shakka o‘tirdi.
24 Ayolning uyida boquvdagi bir buzog‘i bor edi. Ayol uni tezda so‘ydi. Un oldi–da, xamir qorib, xamirturushsiz non yopdi. 25 Taomlarni Shoul bilan a’yonlari oldiga qo‘ydi. Ular yeb–ichib, o‘sha kuni tunda turib jo‘nab ketishdi.

29–BOB

Filistlar Dovudga ishonmaydi

1 Filistlar hamma sipohlarini Ofoqqa* yig‘di. Isroil lashkari esa Yizrildagi buloq yonida qarorgoh qurib, joylashib olgan edilar. 2 Filist beklari yuz va ming kishilik guruhlardan iborat bo‘lgan qo‘shin bilan borishardi. Dovud va uning odamlari esa shoh Oxish bilan birga orqada kelayotgan edilar. 3 Filist lashkarboshilari:
— Anavi ibroniylar bu yerda nima qilib yuribdi? — deb so‘ragan edilar, Oxish shunday javob berdi:
— Bu odam Isroil shohi Shoulning xizmatkori Dovud bo‘ladi. Necha oy–yillardan

beri yonimda yuribdi. Men tomonga o‘tgandan buyon undan biror yomonlik ko‘rmadim.
4 Lekin Filist lashkarboshilari Oxishga:
— Bu odamni orqasiga qaytarib yuboring! — deyishdi jahl bilan. — Siz unga ajratib bergan joyga boraversin. Biz bilan urushga borishiga yo‘l qo‘ymang! Jang vaqtida bizga qarshi chiqishi mumkin. U oldingi xo‘jayiniga o‘zini qanday qilib yaxshi ko‘rsatishini bilasizmi? Odamlarimizning boshini unga tutib berishdan boshqa yaxshi yo‘l topa olarmidi?! 5 Haligi: “Shoul minglarchasini o‘ldirdi, Dovud esa o‘n minglarchasini”, deb kuylab o‘ynab qo‘shiq aytgan edilar–ku. Bu o‘sha Dovud–da.
6 Oxish Dovudni yoniga chaqirib, dedi:
— Xudo haqi, sen yaxshi odamsan. Huzurimga kelganingdan beri biron noma’qul ish qilganingni ko‘rmadim. Men bilan birga urushga borishingni istardim–u, ammo beklarimiz urushga borishingni ma’qul ko‘rishmayapti. 7 Mayli, bu safar orqangga qayt, tinchgina ket, tag‘in Filist beklarining ko‘zi oldida birorta noma’qul ish qilib qo‘ymagin.
8 — Axir, men nima qildim?! — dedi Dovud. — Huzuringizga kelganimdan beri mendan biror ayb topmadingiz–ku! Endi shoh hazratlarining g‘animlariga qarshi urushga nima uchun bormasligim kerak ekan?!
9 — Bilaman, — dedi Oxish, — sen mening nazarimda Xudoning farishtasiday poksan. Lekin Filist lashkarboshilari, biz bilan urushga bormasin, deyishyapti. 10 Endi sen odamlaring bilan ertalab turinglar–da, tong otar–otmas jo‘nanglar.
11 Shunday qilib, Dovud odamlari bilan erta tongda turib, Filistlar hududiga qarab yo‘l oldi. Filistlar esa Yizrilga* jo‘nashdi.

30–BOB

Dovud Omolek xalqini mag‘lub qiladi

1 Dovud odamlari bilan yo‘l yurib, uchinchi kuni o‘z shahri Zixlaxga yetib keldi. Bu orada Omolek xalqi Nagav cho‘liga*, xususan, Zixlax shahriga ham bostirib kirgan, Zixlaxga o‘t qo‘yib, shaharni talon–taroj qilgan ekan. 2 Ular biror kimsani o‘ldirmay, u yerdagi ayollaru yosh–qarini asir olishib, oldilariga solib haydagancha, yo‘llariga qaytib ketishgan edi.
3 Dovud odamlari bilan u yerga yetib borgach, shaharning alanga ichida qolganini, xotinlari, o‘g‘il–qizlarini asir olib ketishganini bildi. 4 Ular holdan toyguncha dod–voy solib yig‘lashdi. 5 Dovudning ikkala xotini — Yizrillik Oxinavam va Karmillik Navolning bevasi Obigayl ham asir olingan edi. 6 Dovud yomon ahvolda qoldi, chunki har bir odam o‘g‘illari, qizlari uchun qayg‘urar, “Dovudni toshbo‘ron qilamiz”, deyishardi. Lekin Dovud o‘z Egasi Xudodan madad oldi. 7 U Oximalekning o‘g‘li ruhoniy Abuatarga*:
— Menga efodni keltir, Egamizning xohish–irodasini bilaylik, — dedi. Abuatar efodni olib keldi. 8 Dovud Egamizdan:
— Bu qaroqchilarning orqasidan quvib boraymi? Quvsam, yetib olamanmi? — deb so‘radi*.
— Orqalaridan quv, ularga albatta yetib olib, asirlarni ozod qilasan, — dedi Egamiz.
9 Shunday qilib, Dovud yonidagi olti yuzta odami bilan yo‘lga chiqib, Basor soyligiga yurish qildi. 10 Ular soylikdan hali o‘tib bo‘lmagan ediki, ikki yuz kishi toliqib yiqilib, o‘sha yerda qoldi. Dovud qolgan to‘rt yuz kishisi bilan qaroqchilarni quvlab ketdi.
11 Cho‘lda bir Misrlikni topib, Dovudning oldiga keltirishdi. “Yeb, ichib ol”, deb unga

non–pon berishdi. 12 Bir hovuch anjir qoqi bilan ikki hovuch mayiz* ham berishdi. Haligi
odam tamaddi qilib olgach, bir oz jonlandi. U uch kechayu uch kunduz na tuz totgan, na
suv ichgan edi.
13 Dovud undan:
— Sen kimning odamisan? Qayerdan kelyapsan? — deb so‘radi.
— Misrlikman, Omolek urug‘idan bo‘lgan bir odamning quliman, — dedi yigit. —
Uch kun oldin kasal bo‘lib qolgan edim, xo‘jayinim meni cho‘lda qoldirib ketdi. 14 Nagav
cho‘lidagi Xaret xalqi hududiga, Yahudo hududiga, Nagav cho‘lidagi Xolib urug‘i
yerlariga bostirib borib, Zixlax shahriga* o‘t qo‘ydik.
15 — Meni o‘sha bosqinchilarning yoniga olib bora olasanmi? — deb so‘radi Dovud.
— Seni o‘ldirmayman, xo‘jayiningning qo‘liga topshirmayman, deb Xudo nomi bilan
ont ichsangiz, sizni o‘sha bosqinchilar oldiga olib boraman, — dedi yigit.
16 Shunday qilib, Misrlik odam Dovudga yo‘l ko‘rsatib ketdi. Bosqinchilar dala
bo‘ylab tarqalib, Filist va Yahudo yerlaridan talon–taroj qilib kelgan mo‘l–ko‘l o‘ljalarini
yeb–ichib, xursandchilik qilishayotgan edi. 17 Dovud ertasi kuni kechqurungacha ularni
qirdi. Tuyalarga minib qochgan to‘rt yuz yigitdan tashqari, ulardan birortasi ham
qutulib keta olmadi.
18 Shunday qilib, Dovud Omolek xalqi tortib olgan hamma narsalarini, jumladan,
ikkala xotinini ham qaytarib oldi. 19 Katta–kichikdan, o‘g‘il–qizlardan, o‘lja olingan
mollardan, xullas, Omolek xalqi olib ketgan narsalardan birortasi qolib ketmadi. Dovud
hammasini qaytarib oldi. 20 Dovud Omolek xalqining hamma mol–qo‘ylarini o‘lja qilib
oldi. Dovudning odamlari o‘lja olingan mol–qo‘ylarni o‘zlarining mollari oldidan haydab
ketar ekan: “Bular — Dovudning o‘ljalari”, deyishardi.
21 Shundan keyin Dovud Basor soyligida toliqib orqada qolib ketgan ikki yuz kishi
oldiga qaytdi. Ular ham Dovud bilan uning odamlarini kutib olgani chiqishdi. Dovud
ularga yaqin kelgach, omonlik tiladi. 22 Lekin Dovud bilan borgan ba’zi yomon, yaramas
odamlar:
— Bular biz bilan birga bormadilar, endi ularga o‘lja olingan narsalardan hech
qanday ulush bermaymiz, har qaysisi faqat xotini bilan bolalarini olib ketsin, —
deyishdi.
23 — Yo‘q, birodarlarim, — dedi Dovud, — bu narsalarni bizga Egamiz berdi, endi
unday qilmanglar. Egamizning O‘zi bizni saqladi, ustimizga bostirib kelgan
bosqinchilarni qo‘limizga berdi. 24 Sizlarning bu gapingizga kim rozi bo‘ladi? Urushga
borganlar bilan anjomlar yonida qolganlarning ulushi birdir, har bir narsa teng
bo‘linadi.
25 O‘sha kundan boshlab Dovud bu usulni Isroilda qonun–qoida holiga keltirdi, ushbu
qonun bugungacha* davom etib kelyapti.
26 Nihoyat, Dovud Zixlaxga qaytdi. U o‘zining o‘rtoqlari — Yahudo oqsoqollariga
tortib olingan o‘ljalardan jo‘natib: “Mana, Egamizning g‘animlaridan tortib olingan
o‘ljalardan sizlarga in’omlar”, deb aytib yubordi. 27 In’omlar quyidagi shaharlarning
oqsoqollariga jo‘natildi: Baytil, Nagav cho‘lidagi Ramo‘t shahri, Yatir, 28 Aror, Sifmo‘t,
Eshtamo‘va, 29 Raxol, Yaraxmal urug‘i va Xayin xalqining shaharlari, 30 shuningdek,
Xo‘rmax, Bo‘r–Oshon, Otax 31 va Xevron shaharlari. Dovud odamlari bilan kezgan
yerlarning hammasiga o‘ljalardan jo‘natdi.

31–BOB

Shoul bilan o‘g‘illari halok bo‘ladilar

1 Filistlar esa shu paytda Isroil lashkari bilan jang qilishayotgan edi. Isroil lashkari
Filistlarning oldiga tushib qochdi, ko‘plari Gilbova tog‘ida* halok bo‘ldi. 2 Endi Filistlar
Shoul bilan uning o‘g‘illari ortidan tushdilar. Natijada Shoulning o‘g‘illari Yo‘natan,
Abunadav va Malkishuva o‘ldirildi. 3 Shoulning atrofida jang tobora avjiga chiqdi. Shu
payt Filist kamonkashlari Shoulga qarata o‘q otdilar. Shoul og‘ir yaralandi. 4 U
qurolbardoriga:

— Qilichingni sug‘urgin–da, menga sanch, toki anavi sunnatsizlar kelib, menga qilich solib, xo‘rlamasinlar, — dedi. Lekin qurolbardori qo‘rqdi, Shoulning aytganini qilmadi. Shunda Shoul qilichini qinidan sug‘urib, o‘zini qilich ustiga tashladi. 5 Qurolbardori ham Shoulning halok bo‘lganini ko‘rib, o‘zini qilichi ustiga tashlab, Shoul bilan birga o‘ldi.
6 Shunday qilib, Shoul, uning uchala o‘g‘li, qurolbardori va hamma sipohlari bir kundayoq halok bo‘lishdi.

7 Yizril vodiysining* naryog‘ida va Iordan daryosining sharq tomonida yashaydigan Isroil xalqi o‘z sipohlarining qochganini, Shoul bilan o‘g‘illari o‘lganini ko‘rishdi–yu, shaharlarini tashlab qochishdi. Filistlar bu shaharlarga kelib o‘rnashib olishdi.

8 Ertasi kuni Filistlar halok bo‘lganlarni talon–taroj qilgani jang maydoniga kelishdi. Birdan ular Gilbova tog‘ida Shoul bilan uchala o‘g‘lining jasadi yotganini ko‘rib qolishdi.
9 Ular Shoulning boshini kesib, qurollarini olishdi. Filist yurti bo‘ylab xabarchilar jo‘natib, bu xushxabarni o‘z butxonalarida e’lon qilib, xalqqa eshittirishdi. 10 Shoulning qurol–aslahasini Ashtaret* uyiga qo‘yishdi, jasadini esa Bayt–Shan shahrining devoriga qoqib qo‘yishdi.

11 Filistlar Shoulni qanday ahvolga solganini Giladdagi Yobosh* aholisi eshitib qoldi.
12 Shunda hamma jasur yigitlar tun bo‘yi yurib, Bayt–Shanga borishdi. Shoul bilan o‘g‘illarining jasadlarini Bayt–Shan devoridan olib, Yobosh shahriga keltirishdi va u yerda kuydirishdi. 13 Suyaklarini yig‘ishtirib, Yoboshdagi yulg‘un daraxti* tagiga dafn qilgach, yetti kun ro‘za tutishdi*

IZOHLAR

1:1 *Rama* — ibroniycha matnda *Ramatayim*. *Rama* — *Ramatayim*ning qisqa shakli (shu bobning 19–oyatiga qarang).

1:3 *Shilo‘* — Quddusdan qariyb 32 kilometr shimolda joylashgan bu shahar Isroil xalqi sajda qiladigan asosiy joy bo‘lib qolgan edi.

1:4 *bir ulush* — ba’zi qurbonliklar olovda butunlay kuydirilmasdan, ma’lum bir qismi kuydirilar, bir qismi esa ruhoniylarga berilar edi. Qolganini qurbonlik keltirgan odamning oila a’zolari va mehmonlari tanovul qilishardi (Levilar 3:1-17, 7:11-18 ga qarang).

1:5 *...yaxshi joyidan bir ulush berardi* — yoki *...ikki ulush berardi*.

1:7 *Egamizning uyi* — Isroil xalqi Egamizga sajda qiladigan asosiy joy Shilo‘dagi Muqaddas chodir edi. Bu paytda Quddusdagi Ma’bad hali qurilmagan edi.

1:11 *...o‘sha o‘g‘limni umrbod Senga nazr qilgan bo‘lardim* — ibroniycha matnda alohida bir so‘z ishlatilgan bo‘lib, bu so‘z Xudoga xizmat qilish uchun maxsus va’da bergan odamni bildiradi. Ba’zi insonlar maxsus va’da berib, o‘zlarini birmuncha vaqt Xudoning xizmatiga bag‘ishlar edilar. Ba’zi birovlar esa tug‘ilgan paytlaridanoq shu va’da orqali Xudoga bag‘ishlanganlar. Tavrot qonuniga ko‘ra, o‘zini Xudoga butunlay bag‘ishlab, nazr qilgan odam sharob yoki may ichmasligi, sochini qirqmasligi, murdaga tegmasligi kerak edi (Sahroda 6:1-8, 21 ga qarang).

1:20 *Shomuil* — ibroniychadagi ma’nosi *Xudodan tilab oldim* yoki *Xudo eshitdi*.

1:22 *Go‘dak ko‘krakdan chiqqandan keyin...* — u vaqtda bolalar odatda ikki yoshlarda ko‘krakdan chiqarilar edi.

1:23 *Egamiz O‘z va’dasini bajo qilsin* — ibroniycha matndan. Qumron qo‘lyozmalarida, qadimiy yunoncha va suryoniycha tarjimalarda *Egamiz sening og‘zingdan chiqqan so‘zni barqaror qilsin*.

1:24 *uch yoshli buqa* — Qumron qo‘lyozmalaridan, qadimiy yunoncha va suryoniycha tarjimalardan. Ibroniycha matnda *uchta buqa*.

1:24 *bir tog‘ora* — ibroniycha matnda *bir efa*, taxminan 22 litrga to‘g‘ri keladi.

1:28 *ular* — qadimiy suryoniycha tarjimadan. Ibroniycha matnda *u*.

2:6 *O‘liklar diyori* — ibroniycha matnda *Sheo‘l*. Qadimda Isroil xalqi *Sheo‘l*ni yer ostidagi tubsiz chuqurlik, marhumlar boradigan qorong‘i joy deb tushunardi.

2:8 *zamin ustunlari* — qadimda Isroil xalqining tasavvuriga ko‘ra, yer tep–tekis bo‘lib, yer ostida buyuk dengiz bor edi, dengiz tubidan chiqqan ulkan ustunlar yerni ushlab turardi. Ular, bu ustunlarning ostidagi poydevor sirli, faqat Yaratganga ayondir, deb tushunganlar.

2:15 *...qurbonlikning yog‘ini kuydirmasdan oldin...* — qurbonliklarning yog‘i Egamizga tegishli edi, shuning uchun qurbonlikning go‘shtini pishirib tanovul qilishdan oldin, uning yog‘i nazr sifatida kuydirilishi lozim edi (Levilar 3:3-4, 9-10, 14-15 ga qarang).

2:18 *ruhoniylarning muqaddas libosi* — ibroniycha matnda *zig‘ir matosidan tikilgan*

efod, ya’ni ruhoniylar kiyib yuradigan libos.

2:19 *kiyim* — ibroniycha matndagi bu so‘z to‘nni yoki ruhoniylar kiyadigan ridoni bildiradi. Shomuil yosh bola bo‘lganiga qaramay, onasi unga ruhoniylar kiyadigan kiyimlarni tikib bergan edi.

2:22 *Uchrashuv chodiri* — Muqaddas chodirning yana bir nomi (1:7 izohiga qarang).

2:22 *Uchrashuv chodiriga kiraverishda xizmat qiladigan ayollar…* — bu ayollar guruhi haqida hech qanday ma’lumot saqlanib qolmagan. Ular Muqaddas Kitobning yana bir joyida — Chiqish 38:8 da tilga olingan. Ehtimol, bu ayollar alohida bir va’da bo‘yicha o‘zlarini Xudoga nazr sifatida bag‘ishlab, Unga xizmat qilganlar (Sahroda 6:1-2 ga qarang).

3:3 *Egamizning Ma’badi* — Isroil xalqi Egamizga sajda qiladigan asosiy joy Shilo‘dagi Muqaddas chodir edi (1:3 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang). Bu paytda Quddusdagi Ma’bad hali qurilmagan edi.

3:3 *Xudoning chirog‘i* — Muqaddas chodirning Muqaddas xonasida turgan bu oltin chiroqpoyadagi shamchiroqlar, Tavrotdagi qonunga ko‘ra, tun bo‘yi yonib turishi kerak edi (Chiqish 27:20-21 ga qarang).

3:15 *Egamizning uyi* — Isroil xalqi Egamizga sajda qiladigan asosiy joy Shilo‘dagi Muqaddas chodir edi (1:3 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang). Bu paytda Quddusdagi Ma’bad hali qurilmagan edi.

4:1 *Shu orada* — taxminan miloddan oldingi 1050 yil.

4:1 *…Evanzor degan joyda…Ofoq shahrida…* — Isroilning shimoli–sharqiy chegarasiga tutash bo‘lgan, Filistlar nazorat qilib turgan yerlarga qarashli ikkita joy.

4:4 *ikki karub* — Ahd sandig‘ining qopqog‘i ustidagi qanotli samoviy mavjudotlar haykallari. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi KARUB, KARUBLAR so‘ziga qarang.

4:8 *qudratli xudolar* — Filistlarning noto‘g‘ri tasavvuriga ko‘ra, yahudiylar ham ko‘p xudolarga topinar edilar.

4:12 *…jang maydonidan…Shilo‘ga…* — Shilo‘gacha bo‘lgan masofa qariyb 37 kilometrni tashkil qilgan.

4:21 *Ixabod* — ibroniychadagi ma’nosi *ulug‘vorlik yo‘q*.

5:1 *Ashdod shahri* — Filistlarning beshta shahridan bittasi (6:17 ga qarang).

5:5 *bugungacha* — shu kitob yozilgan vaqtga ishora.

6:9 *Bayt–Shamash shahri* — Filistlar hududidan qariyb 20 kilometr sharqda joylashgan, Isroil xalqiga qarashli shahar.

6:13 *…bug‘doy o‘rayotgan edi* — bug‘doy may va iyun oylarida o‘rilardi.

6:18 *…shu kungacha…* — shu kitob yozilgan vaqtga ishora.

6:19 *yetmish kishi* — ba’zi ibroniy qo‘lyozmalaridan. Ibroniy qo‘lyozmalarining aksariyatida va qadimgi yunoncha tarjimada *ellik ming yetmish kishi*.

6:21 *Xirat–Yo‘rim* — Bayt–Shamashdan qariyb 11 kilometr masofada, Quddusdan esa 15 kilometr shimoli–g‘arbda joylashgan shahar.

7:5 *Mispax* — Quddusdan qariyb 8 kilometr shimolda joylashgan shahar.

7:12 *Evanzor* — ibroniychadagi ma'nosi *yordam toshi*.

7:14 *Amor xalqlari* — bu o'rinda umumiy nom bo'lib, bu nom ostida o'sha vaqtlarda Kan'onda istiqomat qilgan Isroil xalqidan boshqa jamiki xalqlar nazarda tutilgan.

8:2 *Bersheba shahri* — Isroilning janubiy qismida, Shimo'n qabilasi hududida joylashgan.

8:16 *ho'kizlaringiz* — qadimiy yunoncha tarjimadan. Ibroniycha matnda *yigitlaringiz*.

9:8 *bir kumush tanga* — ibroniycha matnda *chorak shaqal kumush*, taxminan 3 grammga to'g'ri keladi.

9:26 *...tom ustida yotgan...* — u vaqtlarda uylarning tomi tekis bo'lgani uchun, odamlar ko'pincha tomga chiqib yotishardi.

10:5 *Xudoning tepaligi deb atalgan Givo* — ibroniycha matnda *Givot–Eloxim*.

10:12 *Qo'shnilaridan biri e'tiroz bildirdi...Har kim ham payg'ambar bo'lishi mumkin* — ibroniycha matnda *Qo'shnilaridan biri shunday dedi: "Ularning otasi esa kim?!"*

10:17 *Mispax* — Quddusdan qariyb 8 kilometr shimolda joylashgan shahar.

10:20 *Qur'a tashlab...* — qur'a tashlashda yog'och bo'laklari yoki toshlar ishlatilgan bo'lib, shu orqali Xudoning xohish–irodasi aniqlangan. Ba'zan odamlar qur'a tashlab, Xudodan biror ishni qanday yoki qachon qilish kerakligini so'rashgan.

10:25 *...Egamizning uyiga...* — ibroniycha matnda *...Egamizning oldiga...*, ya'ni Shilo'dagi sajdagohga (3:15 ga va o'sha oyatning izohiga qarang). Shomuil bu kitobni Ahd sandig'i yonidagi joyga qo'ygan bo'lsa kerak (Qonunlar 31:26 ga qarang).

11:1 *Ommon* — bu yurt Iordan daryosining sharq tomonida joylashgan edi.

11:1 *Yobosh shahri* — Iordan daryosining sharq tomonida joylashgan Isroil xalqiga qarashli shahar.

11:8 *Bazax shahri* — Iordan daryosining g'arb tomonida joylashgan.

12:11 *Gido'n* — Hakamlar 6:1-8:35 ga qarang. Ibroniycha matnda *Yerubbaal*, Gido'nning yana bir ismi (Hakamlar 6:32, 7:1 ga qarang).

12:11 *Baraq* — Hakamlar 4:1-24 ga qarang. Ibroniycha matnda *Badon*, Baraqning yana bir ismi.

12:11 *Yiftox* — Hakamlar 11:1-12:7 ga qarang.

12:11 *Shimsho'n* — Hakamlar 13:1-16:31 ga qarang.

12:11 *hakamlar* — Isroilda shohlik joriy bo'lmasdan oldin Isroilning yo'lboshchilari hakamlar deb atalgan. Isroil xalqi dushmanlariga qarshi urush ochganda, hakamlar lashkarboshi sifatida xizmat qilardi. Shuningdek, hakamlar qozi vazifasini, ayrim hollarda diniy vazifalarni ham bajarar edilar. Hakamlar 2:16-19 ga qarang.

13:1 *o'ttiz* — qadimiy yunoncha tarjimaning ba'zi qo'lyozmalaridan. Ibroniycha matnda raqam yozilmagan.

13:1 *...Isroilda qirq ikki yil shohlik qildi* — qadimiy yunoncha tarjimaning ba'zi qo'lyozmalaridan (yana Havoriylar 13:21 ga qarang). Ibroniycha matnda *...Isroilda...ikki*

yil shohlik qildi. Ibroniycha matndagi bu raqam to‘liq emas.

13:2 *Yo‘natan* — shoh Shoulning o‘g‘li (shu bobning 16–oyatiga qarang).

13:3 *Gebo shahri* — Givo va Mixmash orasida joylashgan.

13:5 *uch mingta* — qadimiy yunoncha va suryoniycha tarjimalardan. Ibroniycha matnda *o‘ttiz mingta*.

13:8 *Shomuil Shoulga…aytgani uchun…* — 10:8 ga qarang.

13:17 *ilg‘orlar* — lashkarning eng oldingi safda, jangga birinchi bo‘lib kiradigan qismi.

13:20 *o‘roqlar* — qadimiy yunoncha tarjimadan. Ibroniycha matnda *cho‘kichlar*.

13:21 *ikki misqol kumush* — ibroniycha matnda *bir pim*, taxminan 8 grammga to‘g‘ri keladi.

13:21 *govron* — yo‘g‘on novdadan qilingan, uchi o‘tkirlangan podachilar tayog‘i. Podachilar govron bilan mollarni niqtab, yurishga undaydi.

13:21 *bir misqol kumush* — ibroniycha matnda *bir shaqalning uchdan bir qismi*, taxminan 4 grammga to‘g‘ri keladi.

14:14 *kichkina maydon* — ibroniycha matnda *yarim bo‘yinturuq*, ya’ni bir juft ho‘kiz bir kunda shudgor qiladigan dalaning yarmiga to‘g‘ri keladigan yer bo‘lagi (taxminan 0,2 gektar).

14:15 *ilg‘orlar* — 13:17 izohiga qarang.

14:18 *Xudoning Sandig‘ini olib kel…Isroil xalqi bilan edi* — ibroniycha matndan. Qadimgi yunoncha tarjimada *Efodni olib kel, — dedi. O‘sha paytda u efodni Isroil xalqi oldida ko‘tarib yurardi*.

14:31 *Oyjavlon* — Mixmashdan qariyb 32 kilometr g‘arbda joylashgan.

14:33 *…go‘shtni qoni bilan yeb…gunoh ish qilyapti* — Tavrot qonuni bo‘yicha, Isroil xalqi so‘yilgan molning qonini chiqargandan so‘nggina, go‘shtini pishirib tanovul qilishlari lozim edi (Ibtido 9:4, Levilar 17:11, Qonunlar 12:23 ga qarang).

14:34 *…shu yerda…* — Shoul keltirgan katta toshning ustida (shu bobning 33–oyatiga qarang). Mol–qo‘ylarni tosh ustida so‘yib, qonini yerga oqizish uchun shunday qilingan edi.

14:36 *…Xudoning xohish–irodasini bilaylik…* — shoh biror muhim qaror chiqarishdan oldin, Xudoning xohishini bilish uchun ruhoniylarga murojaat qilardi. Bunday hollarda ruhoniylar Urim va Tummim degan muqaddas narsalardan foydalanishardi. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun Chiqish 28:15 ning ikkinchi izohiga qarang. Xudo O‘z xohish–irodasini odamlarga ba’zan payg‘ambarlar yoki tushlar orqali bildirgan (28:6 va 2 Shohlar 2:1 ga qarang).

14:41 *…qur’a tashlandi…* — 10:20 izohiga qarang.

14:49 *Ishbosit* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Yishvi*.

15:2 *Omolek xalqi* — Isroildan janubi–g‘arbda, Sinay yarim orolida yashagan xalq.

15:2 *…ularning yo‘lini to‘sib qo‘ygan edi* — Chiqish 17:8-14, Qonunlar 25:17-19 ga qarang.

15:5 *soylik* — ikki adir oralig‘idagi pastlik. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi SOYLIK so‘ziga qarang.

15:12 *Karmil shahri* — Xevrondan qariyb 11 kilometr janubda joylashgan.

16:1 *qo‘chqor shoxi* — hayvonning ishlov berilgan shoxlaridan ba’zan idish sifatida foydalanilgan.

16:5 *O‘zlaringizni poklanglar…* — diniy xizmatni lozim darajada bajarishga monelik qiladigan nopoklikdan tozalanish marosimi nazarda tutilgan.

17:1 *So‘xu bilan Ozikah shaharlari* — So‘xu Isroil xalqiga qarashli, Ozikah esa Filistlarning qo‘li ostida edi.

17:4 *olti tirsagu bir qarich* — ibroniycha matndan, taxminan 3 metrga to‘g‘ri keladi. Qumron qo‘lyozmalarida va qadimiy yunoncha tarjimada *to‘rt tirsagu bir qarich*, taxminan 2 metrga to‘g‘ri keladi. Ba’zi qadimgi qo‘lyozmalarda 4 va 6 sonlarini tasvirlaydigan ibroniycha harflar bir–biriga juda o‘xshaydi.

17:5 *uch yarim pud* — ibroniycha matnda *besh ming shaqal*, taxminan 57 kiloga to‘g‘ri keladi.

17:7 *yarim pud* — ibroniycha matnda *olti yuz shaqal*, taxminan 8,5 kiloga to‘g‘ri keladi.

17:12 *Efrat* — Baytlahm shahri atrofidagi yerlar.

17:17 *bir tog‘ora* — ibroniycha matnda *bir efa*, taxminan 22 litrga to‘g‘ri keladi.

18:1 *Yo‘natan* — Shoulning to‘ng‘ich o‘g‘li (14–bobga qarang).

18:25 *Filistning sunnat terisi* — Filistlar, Isroil xalqidan farqli ravishda, xatna qilinmasdilar. Qadimgi vaqtlarda jangchilar g‘animlarning nechtasini o‘ldirganini ko‘rsatish uchun dalil sifatida ularning tanasidan birorta a’zosini kesib olishardi.

19:13 *but* — ibroniycha matnda *terafim* (shu bobning 16–oyatida ham bor). *Terafim* xonaki sanam bo‘lib, fol ochish uchun ishlatilgan bo‘lishi mumkin. Chamasi, bu oyatlarda inson qiyofasidagi but to‘g‘risida so‘z ketmoqda. Mixal befarzand bo‘lgani uchun shunga o‘xshash butni uyida yashirincha saqlagan bo‘lishi mumkin.

19:24 *“Nahotki Shoul ham payg‘ambar bo‘lsa?!”* — 10:11-12 da ham bu matalning kelib chiqishi haqida yozilgan.

20:5 *Shoh bilan…o‘tirishim kerak* — yangi oy shodiyonasida har bir odam o‘z oilasi bilan muqaddas taom marosimini nishonlashi shart edi.

20:25 *…Shoulning ro‘parasidan…* — qadimiy yunoncha tarjimadan. Ibroniycha matnda *…Yo‘natan o‘rnidan turdi…*, Yo‘natan Abnurga joy berib, o‘zi boshqa joyga borib o‘tirgan bo‘lishi mumkin.

20:26 *…harom bo‘lgan–u, yuvinmagandir…* — yangi oy shodiyonasida dasturxonga muqaddas taomlar tortilgan, shuning uchun dasturxon atrofida faqatgina poklangan odamlargina o‘tirishi mumkin edi.

21:1 *Nav shahri* — Quddusdan qariyb 4 kilometr sharqda joylashgan.

21:4 *…ayollardan o‘zlarini tiygan bo‘lishsa…* — ayol kishi bilan jinsiy aloqada bo‘lgan odam bulg‘angan hisoblanib, ma’lum bir vaqt mobaynida hech qanday diniy marosimda ishtirok eta olmasdi (Levilar 15:16-18 ga qarang).

21:4 *nazr qilingan non* — Xudoga nazr qilingan nonlar (shu bobning 6–oyatiga va Levilar 24:5-9 ga qarang). Odatda bunday nonlarni faqatgina ruhoniylar tanovul qilishlari mumkin edi.

21:7 *Edom* — bu yurt Isroildan janubda joylashgan edi.

21:10 *Gat* — O‘rta yer dengizi bo‘yida joylashgan bu shahar Filistlarning beshta asosiy shahridan biri edi.

22:1 *Adullam shahri* — Quddusdan qariyb 24 kilometr janubi–g‘arbda joylashgan edi.

22:3 *Mo‘ab* — bu yurt O‘lik dengizning sharqiy qirg‘og‘ida joylashgan edi.

22:6 *Givo* — Quddusdan qariyb 8 kilometr shimolda joylashgan.

22:6 *yulg‘un daraxti* — tez o‘sadigan mayda bargli daraxt. Bu daraxtlar issiq va quruq joylarda o‘sadi.

22:7 *Essayning o‘g‘li* — Dovud.

22:7 *Ey Benyamin odamlari…qilib o‘tiradimi?!* — Shoul Benyamin qabilasidan, Dovud esa Yahudo qabilasidan edi. Dovud yuqori lavozimlarni Benyamin avlodlariga emas, o‘z qabiladoshlariga bermoqchi ekanligini Shoul oldindan aytyapti.

22:9 *Edom* — 21:7 izohiga qarang.

22:10 *…Egamizning xohish–irodasini so‘radi* — 14:36 izohiga qarang.

22:18 *muqaddas libos* — ibroniycha matnda *zig‘ir matosidan tikilgan efod*, ya’ni ruhoniylar kiyib yuradigan libos.

23:1 *Keylax shahri* — Quddusdan qariyb 25 kilometr janubi–g‘arbda joylashgan.

23:2 *…Egamizdan so‘radi* — 14:36 izohiga qarang.

23:3 *Keylax* — bu shahar Filistlar hukmronlik qilgan hududga yaqin joylashgan edi.

23:14 *Zif cho‘li* — Xevrondan qariyb 16 kilometr janubi–sharqda, Zif shahrining yonida joylashgan.

23:19 *Yishmon* — Yahudoning janubiy chegarasiga yaqin bo‘lgan sahrodagi joy.

23:24 *Moyun cho‘li* — Zif shahridan janubdagi yondosh cho‘l (shu bobning 14–oyatiga qarang).

23:28 *“Qutulish qoyasi”* — ibroniycha matnda *“Sela–Xammaxleko‘t”*, ma’nosi *silliq qoya*.

24:1 *En–Gedidagi pana joylar* — Zifdan qariyb 25 kilometr sharqda, O‘lik dengizning g‘arbiy qirg‘og‘iga yaqin bo‘lgan joy.

25:2 *Karmil shahri* — Xevrondan qariyb 11 kilometr janubda joylashgan.

25:8 *ziyofat kuni* — qo‘ylarning junini qirqish bayram sifatida nishonlanar edi.

25:18 *ikki tog‘ora* — ibroniycha matnda *besh sexa*, taxminan 37 kiloga to‘g‘ri keladi.

25:18 *…hovuch mayiz…hovuch anjir qoqi…* — qadimgi paytlarda odamlar uzum va anjirlarni quritgandan keyin, qoqilarni hovuchlarida qattiq siqib, dumaloq shakl berganlar. Shu tariqa qoqilar uzoq vaqt saqlangan va kundalik iste’mol qilinadigan yegulik bo‘lgan.

25:22 *…Xudo mening jazoimni bersin…* — qadimiy yunoncha tarjimadan. Ibroniycha

matnda *…Xudo dushmanlarimning jazosini bersin….*

25:44 *Mixal* — 18:20-27 ga qarang.

26:1 *Yishmon* — Yahudoning janubiy chegarasiga yaqin bo‘lgan sahrodagi joy.

26:6 *Zeruya* — Dovudning opasi, Abushay bilan Yo‘ab esa Dovudning jiyanlari edi (1 Solnomalar 2:16 ga qarang).

26:19 *…begona xudolarga xizmat qil…* — qadimda odamlar, har bir yurtning o‘z xudosi bor va u xudolarga faqatgina o‘sha yurtlarda sajda qilish mumkin, deb ishonishgan. Hatto Isroil xalqining Xudosi haqida ham shunday tasavvurda bo‘lishgan.

26:20 *kaklik* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *baqiradigan*, bu so‘z kaklikka ishora qilib, shu bobning 14–oyatidagi *…chaqirib…baqirib…* deb tarjima qilingan fe’lga o‘zakdosh. Dovud bu o‘rinda so‘z o‘yinidan foydalanib, o‘zini shoh tomonidan ovlanayotgan kaklikka o‘xshatadi.

27:2 *Gat* — O‘rta yer dengizi bo‘yida joylashgan bu shahar Filistlarning beshta asosiy shahridan biri edi.

27:10 *…Yahudoning Nagav cho‘lidagi hududlari…Yaraxmal urug‘i yerlari…Xayin xalqi yerlari…* — Yaraxmal urug‘i Yahudo qabilasiga mansub, Xayin xalqi Yahudoning ittifoqdoshi edi. Oxish “Dovud o‘z qabilasi Yahudoga va Yahudo qabilasining ittifoqdoshiga hujum qilgan”, deb o‘ylashini Dovud istagan edi.

28:4 *Gilbova tog‘i* — Jalila ko‘lidan qariyb 32 kilometr janubi–g‘arbda joylashgan.

28:6 *ruhoniylar* — ibroniycha matnda *Urim*, ruhoniylarga ishora. Shoh biror muhim qaror chiqarishdan oldin, Xudoning xohishini bilish uchun ruhoniylarga murojaat qilardi. Bunday hollarda ruhoniylar Urim va Tummim degan muqaddas narsalardan foydalanishardi. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun Chiqish 28:15 ning ikkinchi izohiga qarang. Xudo O‘z xohish–irodasini odamlarga ba’zan payg‘ambarlar yoki tushlar orqali bildirgan (14:36 va 2 Shohlar 2:1 ga qarang).

28:7 *En–Do‘r* — Gilbova tog‘idan qariyb 16 kilometr shimolda joylashgan shahar.

28:13 *Yer ostidan…* — bu yerda *Sheo‘l*, ya’ni o‘liklar diyori nazarda tutilgan. 2:6 izohiga qarang.

28:19 *…mening yonimda bo‘lasizlar* — halok bo‘lib, o‘liklar diyoriga — *Sheo‘l*ga kelasizlar, demoqchi.

29:1 *Ofoq* — Isroilning shimoli–sharqiy chegarasiga tutash bo‘lgan, Filistlar nazorat qilib turgan yerlarga qarashli shahar.

29:11 *Yizril* — Ofoqdan qariyb 120 kilometr masofada joylashgan shahar.

30:1 *Nagav cho‘li* — hozirgi Isroilning janubida, O‘lik dengizning janubi–g‘arbida joylashgan yerlar.

30:7 *Abuatar* — 23:6 ga qarang.

30:8 *…Egamizdan…deb so‘radi* — 14:36 izohiga qarang.

30:12 *…hovuch anjir qoqi…hovuch mayiz…* — 25:18 ning ikkinchi izohiga qarang.

30:14 *Nagav cho‘lidagi Xaret xalqi hududi…Zixlax shahri…* — bu joylar Yahudo hududining janubidagi sahroda edi. Ehtimol, Xaret xalqi Filistlarga qondosh xalq

bo‘lgan.

30:25 *bugungacha* — shu kitob yozilgan vaqtga ishora.

31:1 *Gilbova tog‘i* — Jalila ko‘lidan qariyb 32 kilometr janubi–g‘arbda joylashgan.

31:7 *Yizril vodiysi* — Gilbova tog‘idan shimoli–sharqda joylashgan.

31:10 *Ashtaret* — Kan’ondagi xalqlar sajda qilgan hosildorlik va urush xudosi bo‘lib, ayol qiyofasida tasavvur qilingan.

31:11 *Yobosh* — 11:1-11 ga qarang.

31:13 *yulg‘un daraxti* — 22:6 ning ikkinchi izohiga qarang.

31:13 *...yetti kun ro‘za tutishdi* — o‘sha davrdagi urf–odatlarga ko‘ra, azadorlar ro‘za tutishardi.

SHOHLAR
(IKKINCHI KITOB)

Kirish

“Shohlar (ikkinchi kitob)”ning koʻp qismi shoh Dovudning hukmronligi davrida yuz bergan voqealarning tarixidir. Mazkur kitobda shoh Dovudning qozongan zafarlari, amalga oshirgan ezgu ishlari, qilgan gunohlari va oʻsha gunohlarning oqibatlari haqida bayon qilinadi. Xudoga boʻlgan itoatkorlik baraka keltirishini, itoatsizlik esa jazo va kulfat keltirishini shoh Dovud hayotida yaqqol koʻrishimiz mumkin.

“Shohlar (birinchi kitob)” va “Shohlar (ikkinchi kitob)”ning asl nusxasi bitta ibroniycha kitob boʻlib, ikkala qismini bitta oʻramga joylash uzunlik qilgani uchun, kitob ikki qismga — “Shohlar (birinchi kitob)” va “Shohlar (ikkinchi kitob)”ga boʻlingan.

Shoh Shoulning oʻlimidan keyin Yahudo qabilasi Dovudni oʻzlariga shoh qilib tanlaydi. Qolgan barcha Isroil qabilalari esa Shoul oʻgʻli Ishbositni oʻzlariga shoh qiladilar. Dovud bilan Ishbosit oʻrtasida yetti yil urush boʻladi. Oxiri, Dovud jamiki Isroil va Yahudo yurtlarining shohi boʻladi.

Dovud Quddus shahrini Yobus xalqidan tortib olib, oʻz shohligining yangi poytaxti qiladi va Ahd sandigʻini bu yerga olib keladi. U Xudoga atab Ma’bad qurishni niyat qiladi, u yerni Ahd sandigʻi saqlanadigan bir joy qilmoqchi boʻladi. Lekin Xudo Dovudga bundan–da yuqori izzat–ikrom koʻrsatmoqchi boʻladi. U Dovudga, Men sen uchun bir xonadon yarataman, nomingni mashhur qilaman, sen qudratli hukmdor boʻlasan, sening nasling to abad shoh boʻladi, deb va’da beradi. Keyinchalik, Dovudning pushti kamaridan bino boʻlgan oʻgʻli Sulaymon Xudoga atab, Ma’bad quradi.

Dovud Isroilning dushmanlarini magʻlub qiladi va kuchli shohlikning hukmdori boʻladi. Shunga qaramay, u gunohga qoʻl uradi. Bu gunoh oqibatida Xudo Dovudga ogʻir kulfat keltiradi. Bu kulfatlarning aksariyati oʻz oilasi ichida yuz beradi.

Dovud benuqson inson emas edi–yu, lekin Xudoga sodiq boʻlib, yolgʻiz Unga sajda qilardi. Shuning uchun Xudo Dovudga iltifot koʻrsatadi, shohlik taxtingni to abad mustahkam qilaman, deya va’da berib, uning sulolasini barqaror qiladi.

1–BOB

Dovud Shoulning oʻlimidan xabar topadi

1 Shoul halok boʻlgandan keyin, Dovud Omolek xalqini yengib, Zixlax shahriga qaytib
keldi va u yerda ikki kun qoldi. 2 Uchinchi kuni Shoulning qarorgohidan Dovudning
oldiga bir odam keldi. U qayg‘udan kiyimlarini yirtgan, boshiga tuproq sochgan*,
ayanchli ahvolda edi. Oʻsha odam Dovudning oldiga kelgach, muk tushib, unga ta’zim
qildi.
3 — Qayerdan kelyapsan? — deb soʻradi Dovud.
— Isroil qarorgohidan qochib keldim, — dedi u odam.
4 — Ayt–chi, nima boʻldi? — deb soʻradi Dovud.
— Sipohlar urush maydonidan qochdilar, odamlarimizdan koʻplari oʻldirildi, Shoul
bilan oʻgʻli Yoʻnatan ham halok boʻldi, — dedi u. Shunda Dovud:

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

5 — Shoul bilan o‘g‘li Yo‘natanning halok bo‘lganini qayerdan bilasan? — deb so‘radi
xabar keltirgan yigitdan.
6 — Tasodifan Gilbova tog‘iga* borgan edim, — deb gapida davom etdi u. — Shoul
nayzasiga zo‘rg‘a suyanib turar, dushman otliqlari va jang aravalari esa unga tomon
yopirilib kelayotgan ekan. 7 Shoul orqasiga qarab, meni ko‘rib qolib chaqirdi. “Labbay”,
dedim men. 8 “Sen kimsan?” deb so‘radi Shoul. “Omolek xalqidanman”, dedim men.
9 So‘ng u: “Bu yoqqa kel, meni o‘ldir. Tarashaday bo‘lib serrayib qoldim–u, lekin jonim
chiqmayapti”, dedi. 10 Shoh og‘ir yaralangani uchun endi yashay olmasligiga ko‘zim
yetib, uni o‘ldirdim*. Boshidagi tojini va qo‘lidagi bilakuzugini olib, sizga — janobi
oliylariga keltirdim.
11 Dovud bu gapni eshitib, qayg‘udan kiyimlarini yirtdi. Boshqalar ham shunday
qildilar. 12 Shoul va uning o‘g‘li Yo‘natan, Egamizning lashkari — Isroil xalqidan
ko‘pchiligi jangda halok bo‘lgan edilar. Shuning uchun hammalari oqshomgacha aza
tutib faryod qildilar, ro‘za tutdilar.
13 Dovud shum xabarni olib kelgan yigitdan:
— Qayerliksan? — deb so‘radi.
— Men Omolek xalqidanman, begona xalqdanman, — dedi yigit.
14 — Egam moy surtib Shoulni shoh qilib tanlagan edi–ku! Shunday shohga qo‘l
ko‘tarib, o‘ldirishdan qo‘rqmadingmi? — dedi Dovud unga. 15 Keyin Dovud bitta sipohini
chaqirdi–da:
— Qani, o‘ldir uni! — deb buyurdi. Sipoh o‘sha Omolek yigitga bir qilich urib o‘ldirdi.
Dovud unga qarata:
16 — Tiling o‘zingning boshingga yetdi. Egam moy surtib tanlagan shohni men
o‘ldirdim, deb o‘z og‘zing bilan guvohlik berding, — dedi.

Dovudning marsiyasi

17 Shoul bilan uning o‘g‘li Yo‘natan uchun Dovud marsiya kuyladi. 18 So‘ng, ushbu
marsiya* Yahudo xalqiga o‘rgatilsin, deb farmon berdi. Bu marsiya “Yoshur” kitobida*
yozilgan.

19 “Ey Isroil,
Yo‘q bo‘ldi g‘ururing sening tepaliklaringda,
Qanday qulagan ekan dovyuraklar!
20 Bu xabarni Gatliklarga eshittirmang,
Ashqalon* ko‘chalarida yoyib yurmang.
Toki Filist qizlari sevinmasin,
Sunnatsizlarning qizlari shod bo‘lmasin.

21 Ey Gilbova tog‘lari*,
Tepangizga shudring, yomg‘ir tushmasin,
Hosildor yerlaringiz hosilsiz qolsin!
O‘sha yerlarda yo‘qotdi shuhratini
Bahodirlarning qalqoni,
Shoulning qalqoniga moy surtilmas endi*.

22 Bir dam tinmadi Yo‘natanning yoyi

Yer tishlaganlar qonidan
Va yigitlarning tanasidan.
Shoulning qilichi behuda ko‘tarilmasdi.

23 Shoul bilan Yo‘natan aziz va dilkash edilar,
Hayotda ham, o‘lganda ham birga bo‘ldilar.
Burgutdan chaqqon,
Sherdan kuchli edi ular.

24 Shoul uchun aza tuting, ey Isroil qizlari!
U sizlarga shohona liboslar kiydirgandi,
Libosingizni oltin taqinchoqlar ila bezagandi.

25 Urushda qanday qulagan ekan dovyuraklar!
Ey Isroil, sening tepaliklaringda Yo‘natan jonsiz yotar.
26 Qayg‘uraman sen uchun, birodarim Yo‘natan,
Menga ko‘p azizu qadrdon eding sen,
Naqadar ajoyib edi menga bo‘lgan muhabbating,
Ayollarning sevgisidan ham ortiq edi.

27 Qanday qulagan ekan dovyuraklar!
Qanday yo‘q bo‘ldi jang qurollari.”

2–BOB

Dovud Yahudo shohi bo‘ladi

1 Shundan keyin Dovud Egamizdan:
— Yahudo shaharlaridan birortasiga boraymi? — deb so‘radi*.
— Bor! — dedi Egamiz.
— Qaysi shaharga boray? — deb so‘radi Dovud.
— Xevronga bor! — deb javob berdi Egamiz.
2 Dovud ikkala xotini — Yizrillik Oxinavam va Karmillik Navolning bevasi Obigayl bilan o‘sha yoqqa jo‘nadi. 3 Odamlarini ham oilalari bilan birga olib ketdi. Hammalari Xevron atrofidagi shaharlarga joylashdilar. 4 Yahudo xalqi Xevronga borib, Dovudning boshiga moy surtib, uni Yahudo ustidan shoh qilib tayinlashdi.

Shunda ular Dovudga: “Giladdagi Yobosh shahri aholisi Shoulni dafn qilibdi”, deb xabar yetkazishdi. 5 Dovud xabarchilar orqali Yobosh aholisiga shunday xabar jo‘natdi: “Shoul shoh janoblariga sadoqatingizni ko‘rsatib, uni dafn qilibsizlar. Buning uchun sizlarni Xudo yorlaqasin. 6 Egam sizlardan marhamatini va sadoqatini darig‘ tutmasin. Qilgan xayrli ishingizga yarasha sizlarga yaxshilik qilay. 7 Endi dadil, mard bo‘linglar. Shoh janoblari Shoul olamdan o‘tdilar. Yahudo xalqi esa menga moy surtib o‘zlariga shoh qildi.”

Ishbosit Isroilga shoh bo‘ladi

8 Nar degan odamning o‘g‘li Abnur* Shoulning lashkarboshisi bo‘lgan edi. Abnur Shoulning o‘g‘li Ishbositni Moxanayim shahriga* olib keldi. 9 Uni Gilad, Osher*, Yizril, Efrayim, Benyamin hududlariga — butun Isroilga* shoh qildi. 10 Ishbosit qirq yoshida

shoh bo‘lib, u Isroilda ikki yil shohlik qildi.

Lekin Yahudo xalqi Dovudga ergashdi. 11 Dovud Xevronda Yahudo xalqiga yetti yilu
olti oy shohlik qildi.

Isroil va Yahudo orasidagi urush

12 Nar o‘g‘li Abnur Ishbositning odamlarini boshlab Moxanayimdan chiqdi va Givon
shahriga* qarab yurdi. 13 Dovudning odamlariga Zeruya* o‘g‘li Yo‘ab bosh bo‘lib u yerga
borganda, Givon hovuzi* yonida Ishbositning odamlariga duch kelib qoldi.
Tomonlarning biri hovuzning bir tarafida, ikkinchisi boshqa tarafida to‘xtadi. 14 Abnur
Yo‘abga:

— Qani, har ikkala tomondan yigitlar ro‘paramizda olishsinlar, — dedi.

— Mayli, olishaversinlar, — dedi Yo‘ab.

15 Ishbositning Benyamin qabilasidan o‘n ikkitasi, Dovudning odamlaridan ham o‘n
ikkitasi chiqdi. 16 Ular bir qo‘li bilan bir–birlarining boshlarini ushlashdi, ikkinchi qo‘li
bilan qilichlarini bir–birlarining biqinlariga sanchishdi. Hammalari birga yerga yiqilib
jon berishdi. Shu sababdan Givondagi o‘sha joyga “Tig‘lar maydoni”* deb nom berilgan.

17 O‘sha kungi jang juda qattiq bo‘ldi. Baribir, Abnur boshchiligidagi Isroil odamlari
Dovudning odamlaridan yengildi. 18 Zeruyaning uch o‘g‘li — Yo‘ab, Abushay va Osoyil
ham o‘sha kuni u yerda edilar. Osoyil, xuddi kiyikka o‘xshab, juda chopag‘on edi. 19 U
o‘ngga ham, chapga ham burilmay, to‘ppa–to‘g‘ri Abnurning izidan quvib ketdi.

20 Abnur orqasiga qarab:

— Osoyil, bu senmisan? — deb so‘radi.

— Ha, menman, — dedi Osoyil.

21 — Yo o‘ngga yoki chapga ket, yigitlardan birortasiga hamla qilib, qurol–yarog‘ini
ol, — dedi Abnur. Ammo Osoyil Abnurning ortidan qolmadi. 22 Abnur Osoyilni yana
ogohlantirdi:

— Meni quvlama, tag‘in abjag‘ingni chiqarib yubormay! Aks holda, akang Yo‘abning
yuziga qanday qarayman?!

23 Baribir Osoyil uning ortidan qolmadi. Abnur nayzasining orqa uchi bilan
Osoyilning qorniga bir urgan edi, nayza Osoyilning orqasidan teshib chiqdi. Osoyil yerga
yiqildi–yu, jon berdi. Hamma Osoyil yiqilib o‘lgan joyga yetib bordi–yu, to‘xtab qoldi.

24 Yo‘ab bilan Abushay esa Abnurning izidan qolmadi. Kun botganda, ular Omoh
tepaligiga yetib borishdi. Omoh Givon cho‘liga boradigan yo‘lning sharq tomonidagi
Giyoh degan joy yaqinida edi. 25 Benyamin qabilasidan odamlar yig‘ilib kelib, Abnurning
atrofiga birlashdi va bir tepalikning ustida to‘xtashdi. 26 So‘ngra Abnur Yo‘abni chaqirib,
dedi:

— Qachongacha bir–birimizni qiramiz?! Buning oqibati yomon bo‘lishini bilasan–ku!
Odamlaringga: “Bo‘ldi, endi birodarlaringizni ta’qib qilmanglar”, deb qachon buyruq
berasan?

27 Yo‘ab esa shunday javob berdi:

— Xudo haqi, yaxshiyamki o‘zing aytding. Bo‘lmasa, odamlarim ertaga ertalabgacha
birodarlarini ta’qib qilishni to‘xtatmasdilar.

28 Yo‘ab burg‘u chaldirdi, hamma to‘xtadi. Shundan so‘ng ular Isroil lashkarini ta’qib
qilmadilar, ular bilan jang qilmadilar. 29 Abnur esa tun bo‘yi odamlari bilan Iordan
vodiysi* bo‘ylab yurib, Iordan daryosini kechib o‘tdi, ular jarlikni yoqalab*,

Moxanayimga yetib kelishdi.
30 Yo‘ab Abnurni quvlashdan to‘xtab, orqasiga qaytdi va hamma odamlarini to‘pladi.
Osoyildan tashqari, Dovudning odamlaridan yana o‘n to‘qqiz kishi halok bo‘lgan edi.
31 Lekin Dovudning odamlari Abnurning qo‘li ostidagi Benyamin qabilasidan uch yuz
oltmish kishini o‘ldirgan edilar. 32 Yo‘ab odamlari bilan Osoyilning jasadini olib kelib,
ota–bobolarining Baytlahmdagi xilxonasiga dafn qilishdi. Yo‘ab va uning odamlari tuni
bilan yo‘l yurib, Xevronga yetib kelishganda, tong otgan edi.

3–BOB

Dovudning Xevronda tug‘ilgan bolalari

1 Shoul xonadoni bilan Dovud xonadoni o‘rtasidagi urush uzoq davom etdi.
Shoulning xonadoni zaiflashgan sari, Dovudning xonadoni kuchayib boraverdi.
2 Dovudning Xevronda tug‘ilgan o‘g‘illari quyidagilardir:

to‘ng‘ichi — Omno‘n. Omno‘nning onasi Yizrillik Oxinavam edi.
3 Ikkinchisi — Doniyor*. Doniyorning onasi Karmillik Navolning bevasi Obigayl
edi.
Uchinchisi — Absalom. Absalomning onasi Gashur shohi Talmayning qizi Maxo
edi.
4 To‘rtinchisi — Odoniyo. Odoniyoning onasi Xaggit edi.
Beshinchisi — Shafatiyo. Shafatiyoning onasi Obida edi.
5 Oltinchisi — Yitrom. Yitromning onasi Eglax edi.

Dovudning bu o‘g‘illari Xevronda tug‘ilgan edilar.

Abnur Dovudga qo‘shiladi

6 Shoul xonadoni bilan Dovud xonadoni o‘rtasida urush bo‘lganda, Shoulning
xonadonidan lashkarboshi Abnur tobora kuchayib boraverdi. 7 Shoulning Rizpa degan
kanizagi* bo‘lardi. U Oyo degan odamning qizi edi. Bir kuni Ishbosit Abnurga:
— Nimaga otamning kanizagi bilan birga bo‘lding? — deb qoldi. 8 Abnur Ishbositning
gapidan qattiq g‘azablanib:
— Meni, Yahudoga xizmat qilayotgan ko‘ppaklardan, deb o‘ylayapsizmi? — dedi. —
Bugungacha otangiz Shoulning xonadoniga, xesh–aqrabosiga, yor–birodarlariga sodiq
qoldim–ku. Sizni Dovudning qo‘liga bermadim–ku. Endi esa o‘sha xotin tufayli meni
ayblayapsiz. 9-10 Egamiz: “Shohlikni Shoul xonadonidan tortib olaman, Dandan
Bershebagacha* bo‘lgan joyda yashovchi Isroil va Yahudo xalqi ustidan Dovudning
shohligini barpo qilaman”, deb ont ichgan. Endi men ham Dovud uchun xizmat
qilmasam, Xudo meni ne ko‘yga solsa solsin, hatto undan battarrog‘ini qilsin.
11 Ishbosit Abnurdan qo‘rqdi, unga churq eta olmadi. 12 Shundan so‘ng Abnur o‘z
nomidan Dovudga choparlar orqali shunday xabar berdi: “Bu yurtda siz hukmron
bo‘lishingiz kerak. Men bilan ahd qiling. O‘shanda men siz tomonda bo‘laman, butun
Isroil xalqini sizga moyil qilaman.”
13 Dovud shunday javob jo‘natdi: “Yaxshi, sen bilan ahd qilaman. Lekin bitta shartim
bor: meni ko‘rgani kelganingda, Shoulning qizi, xotinim Mixalni ham olib kel. Aks holda,
meni ko‘ra olmaysan.”

14 Dovud Ishbositga ham elchilar orqali shu xabarni jo‘natdi: “Xotinim Mixalni
o‘zimga qaytarib ber. Men uni yuzta Filistning sunnat terisi evaziga olgan edim*.”
15 Ishbosit Mixalning eri Palti* huzuriga odamlar jo‘natib, Mixalni oldirib keldi. Palti
Layish deganning o‘g‘li edi. 16 Eri yo‘l bo‘yi yig‘lay–yig‘lay Boxurim shahrigacha Mixalga
ergashib bordi. Keyin Abnur unga:
— Orqangga qayt! — dedi. Palti qaytib ketdi.
17 Abnur Isroil oqsoqollariga shunday xabar jo‘natdi:
— Sizlar anchadan beri, Dovud bizga shoh bo‘lsin, deb orzu qilib kelardingizlar.
18 Endi harakat qilinglar. Chunki Egamiz Dovud to‘g‘risida gapirib: “Xalqim Isroilni qulim
Dovud orqali Filistlarning va jamiki g‘animlarining qo‘lidan qutqaraman”, degan.
19 Abnur Benyamin odamlari* bilan yuzma–yuz gaplashdi. So‘ng Isroil xalqi va
Benyamin qabilasi bildirgan istagi to‘g‘risida Dovud bilan gaplashgani Xevronga bordi.
20 Abnur yigirmata hamrohi bilan Dovudning huzuriga keldi. Dovud Abnur va uning
hamrohlari sharafiga ziyofat berdi. 21 Abnur Dovudga:
— Endi ketishga ijozat bering, butun Isroil xalqini shoh hazratlari huzuriga yig‘ib
kelay, — dedi. — Ular siz bilan ahd qilganlaridan keyin, o‘zingiz istagan hamma joyda
shohlik qiling.
Dovud Abnurga ijozat berdi. Abnur sog‘–salomat o‘z yo‘liga ketdi.

Yo‘ab Abnurni o‘ldiradi

22 Xuddi shu paytda Dovudning Yo‘ab boshchiligidagi odamlari dushman shahrini
talon–taroj qilib qaytishdi. Ular bir qancha mol–mulkni o‘lja qilib olib kelishdi. Ammo
Abnur Xevronda — Dovudning huzurida emas edi. Dovud Abnurga ijozat bergandan
keyin, u sog‘–salomat ketgan edi. 23 Yo‘ab hamma jangchilari bilan Xevronga yetib
kelganda, unga: “Abnur shoh huzuriga kelgan edi, shoh unga qaytib ketishga ijozat
berdi, Abnur eson–omon ketdi”, deb aytib berishdi.
24 — Nima qilib qo‘ydingiz? — dedi Yo‘ab shohning huzuriga borib. — Bu qanaqasi,
sizning huzuringizga Abnur o‘z oyog‘i bilan kelsa–yu, siz esa uni qo‘yib yuborsangiz?!
Abnur ketib qolibdi–ku. 25 Abnurni bilasizmi o‘zi?! U sizni aldagan, qayerga
borishingizni, kelishingizni, nima qilayotganingizni bilish uchun kelgan.
26 Yo‘ab Dovudning huzuridan chiqiboq, Abnurning orqasidan choparlar jo‘natdi.
Choparlar Abnurni Siro sardobasi bo‘yidan qaytarib kelishdi. Dovud bu voqeadan
bexabar edi. 27 Abnurni Xevronga qaytarib kelishgach, Yo‘ab: “Xoli gaplashib olaylik”,
deb uni darvoza yo‘lagiga olib o‘tdi. Ukam Osoyilning o‘limi uchun qasos olay deb,
Abnurning qorniga pichoq urib, o‘ldirdi.
28 Dovud bu voqeani eshitgach, dedi:
— Egam oldida men ham, shohligim ham to abad Abnurning qoni uchun aybdor
emas. 29 Uning qoni Yo‘ab va uning jamiki ota xonadoni gardaniga tushsin. Yo‘abning
avlodidan yara toshgan, teri kasalligiga* chalingan, cho‘loq, urushda o‘lgan, nonga zor
bo‘lgan kishilar hech arimasin.
30 Yo‘ab akasi Abushay bilan birgalikda Abnurni o‘ldirdi. Abnur Givondagi urushda
ularning ukasi Osoyilni o‘ldirgan edi.

Abnur dafn qilinadi

31 So‘ngra Dovud Yo‘ab bilan uning hamma odamlariga shunday amr berdi:
— Abnurning jasadi tepasida yig‘langlar. Kiyimlaringizni yirtib, qanorga

oʻraninglar*.

Shoh Dovudning oʻzi tobutning orqasida bordi. 32 Abnurni Xevronda dafn qilishdi. Shoh Dovud Abnurning qabri ustida yigʻladi. Oʻsha yerda hamma hoʻng–hoʻng yigʻladi. 33 Shoh Dovud Abnur uchun yigʻlayotib, shunday marsiya aytdi:

> “Ey Abnur, ahmoqlarday oʻlishing kerakmidi?!
> 34 Jinoyatchilarday qoʻllaring bogʻliq emasdi,
> Jinoyatchilarday oyoqlaringga kishan urilmagandi.
> Insofsizlar qoʻliga tushib qolding sen,
> Vijdonsizlar dastidan nobud boʻlding sen.”

Hamma Abnurning tepasida yana yigʻladi.

35 Quyosh botmasdan oldin xalq Dovudning yoniga borib:

— Biror narsa tanovul qilib oling, — deb koʻndirmoqchi boʻldi.

— Quyosh botmasdan oldin non yoki boshqa biror narsa tanovul qilsam, Xudo meni ne koʻyga solsa solsin, hatto undan battarrogʻini qilsin, — deb ont ichdi Dovud.

36 Shohning hamma qilgan ishlari barchaga ma’qul kelgani singari, xalq uning bu ishini ham ma’qul topdi. 37 Oʻsha kuni butun Isroil xalqi Abnurning oʻldirilishida shohning qoʻli yoʻqligini bildi.

38 Shoh odamlariga dedi:

— Bilmaysizlarki, bugun Isroildan bir yoʻlboshchi, ulugʻ bir inson ketdi. 39 Xudo moy surtib tanlagan shoh boʻlsam ham, bugun ojizman. Anavi Zeruyaning oʻgʻillari mendan ancha kuchli. Egam yomonlarning qilmishiga yarasha jazosini bersin.

4–BOB

Ishbosit oʻldiriladi

1 Ishbosit Abnurning Xevronda oʻldirilganini eshitdi–yu, boʻshashib qoldi. Butun Isroil xalqi vahimaga tushdi. 2 Ishbositning xizmatida Banax va Raxav degan ikkita odam bor edi, ular bosqinchi toʻdalar sardori edilar. Oʻzlari Baroʻt shahridan boʻlib, Benyamin qabilasidan Rimmon deganning oʻgʻillari edi. Baroʻt shahri u vaqtda Benyamin hududiga kirardi. 3 Baroʻt aholisi Gitayim shahriga qochib ketgan edi. Oʻshandan buyon ular kelgindi boʻlib oʻsha yerda yashaydilar.

4 Shoulning naslidan Mefibosit degan ikkala oyogʻi ham nogiron bola bor edi. U Yoʻnatanning oʻgʻli edi. “Shoul bilan Yoʻnatan halok boʻldi”, deb Yizril shahridan xabar kelganda, Mefibosit besh yoshda edi. Enagasi, bolani olib qochaman deb, shosha–pisha ketayotganda, bolani qoʻlidan tushirib yuborgan, bola esa nogiron boʻlib qolgan edi.

5 Bir kuni Raxav bilan Banax kun rosa qizigan paytda Ishbositning uyiga kelishdi. Tush payti, Ishbosit oʻzining xonasida uxlayotgan ekan. 6-7 Ikkala aka–uka bugʻdoy olish bahonasida uyga kirishdi. Uyga kirganlari zahoti, Ishbositning qorniga xanjar urib, uni oʻldirdilar. Soʻng uning boshini kesib olib ketdilar.

Raxav bilan Banax tun boʻyi Iordan vodiysi* boʻylab yurishdi.

8 Ular Ishbositning boshini Xevronga — shoh Dovudga olib kelishib, unga shunday deyishdi:

— Mana sizni oʻldirmoqchi boʻlgan gʻanimingiz Shoulning oʻgʻli Ishbositning boshi!

Egamiz bugun Shouldan va uning xonadonidan shoh janoblari uchun o‘ch oldi.
9 Biroq Dovud Raxav bilan ukasi Banaxga shunday dedi:
— Jonimni har turli balo–qazolardan asragan Xudo shohid! 10 Shoulning o‘limini bittasi o‘zicha xushxabar deb olib kelgan edi. O‘sha odamni ushlab, Zixlaxda o‘ldirtirgan edim. Uning mukofoti shu bo‘lgan edi! 11 Aybsiz odamni o‘zining uyida, to‘shagida o‘ldirgan yovuz kimsalar ham albatta o‘ldiriladi! Hoziroq sizlardan uning xunini talab qilaman, sizlarni quritib yuboraman!
12 Dovud yigitlariga farmon bergan edi, ular ikkala aka–ukani o‘ldirishdi. So‘ng qo‘l–oyoqlarini kesib tashlab, jasadlarini Xevrondagi hovuz bo‘yidagi tik o‘rnatilgan xodalarning uchlariga qoqishdi. Ishbositning boshini Abnurning Xevrondagi xilxonasiga olib borib dafn qilishdi.

5–BOB

Dovud Isroil va Yahudo shohi bo‘ladi

1 Jamiki Isroil qabilalari Xevronga — Dovudning huzuriga kelib shunday deyishdi:
— Biz ham sizning jigaringizmiz. 2 Ilgari Shoul shohimiz bo‘lganda ham, urushlarda Isroil lashkariga o‘zingiz bosh bo‘lar edingiz. Egamiz sizga: “Sen xalqim Isroilning cho‘poni bo‘lib, ularni boqasan, Isroilga sen rahnamolik qilasan”, deb aytgan edi.
3 Shunday qilib, Dovud Xevronda Isroil oqsoqollari bilan Egamiz oldida ahd qildi. Isroil oqsoqollari Dovudning boshiga moy surtib, uni Isroil ustidan shoh qilib ko‘tarishdi. 4 Dovud o‘ttiz yoshida shoh bo‘lib, qirq yil shohlik qildi: 5 Xevronda yetti yilu olti oy Yahudo ustidan, Quddusda esa o‘ttiz uch yil butun Isroil va Yahudo ustidan shoh bo‘ldi.
6 Shoh Dovud odamlari bilan Quddusda yashayotgan Yobus xalqiga qarshi otlanganda, ular Dovudga: “Sen bu yerga kira olmaysan, hatto oramizdagi ko‘rlar bilan cho‘loqlar ham seni orqangga uloqtirib yuboradi”, deyishdi. Yobus xalqi: “Dovud shahrimizni bosib ololmaydi”, deb o‘ylagan edi. 7 Ammo Dovud Sion qal’asiga* bostirib kirib, qal’ani egalladi. Keyinchalik bu qal’aga “Dovud qal’asi” deb nom berildi.
8 O‘sha kuni Dovud odamlariga shunday dedi:
— Kimki Yobus xalqini yengmoqchi bo‘lsa, shaharga quvur orqali kirib, “cho‘loq” va “ko‘r” Yobuslarga hujum qilsin. Ularni ko‘rgani ko‘zim yo‘q.
Shu sababdan: “Ko‘rlar bilan cho‘loqlar Xudo uyiga kirmaydi” degan gap paydo bo‘lgan.
9 Shunday qilib, Dovud qal’ani egallab, bu yerni “Dovud qal’asi” deb atadi. U Quddusning sharq tomonidagi Millodan* boshlab, butun shahar atrofini devor bilan o‘rab mustahkamladi. 10 Dovud tobora kuchayib borardi, chunki Parvardigori Olam — Egamiz unga yor edi.
11 Tir* shohi Xiram Dovudga elchilar jo‘natib, sadr yog‘ochlarini, duradgorlar va tosh teruvchilarni ham yo‘lladi. Ular Dovudga bir saroy qurib berishdi. 12 Dovud endi bildiki, Egamiz uni Isroil ustidan shoh qilib tayinlagan ekan, Egamiz O‘z xalqining haqi–hurmati uchun uning shohligini yuksaltirgan ekan.
13 Dovud Xevrondan Quddusga kelgandan keyin, bu yerda yana kanizaklar*, xotinlar oldi, ular Dovudga yanada ko‘p o‘g‘il–qizlar tug‘ib berishdi. 14 Dovudning Quddusda tug‘ilgan farzandlari quyidagilar edi: Shammuva, Sho‘vav, Natan, Sulaymon, 15 Yibxar,

Elishuva, Nafax, Yofiya, 16 Elishama, Elyodax va Elifalet.

Dovud Filistlarni mag‘lub qiladi

17 Filistlar: “Isroil xalqi Dovudga moy surtib shoh qilishibdi” degan xabarni
eshitishdi. Shundan keyin barcha Filist lashkari Dovudni qidirib jangga otlandilar.
Dovud bu xabarni eshitib, muhofaza qo‘rg‘oniga chiqdi. 18 Filistlar kelib, Rafa vodiysida*
yoyildilar. 19 Dovud Egamizdan:

— Filistlarga hujum qilaymi? Ularni qo‘limga berasanmi? — deb so‘radi*.

— Hujum qil! — deb javob berdi Egamiz Dovudga, — ularni albatta qo‘lingga
beraman.

20 Shunday qilib, Dovud Baal–Perazimga ketdi va u yerda Filistlarni tor–mor qildi.
Keyin shunday dedi:

— Suv to‘g‘ondan toshib, dalani bosgani singari, Egam g‘animlarimni bosib,
oldimdan uloqtirib yubordi.

Shu sababdan bu yerga “Baal–Perazim”* degan nom berildi. 21 Filistlar o‘sha yerda
butlarini tashlab qochgan edilar, Dovud odamlari bilan o‘sha butlarni olib ketdi.

22 Ko‘p o‘tmay Filistlar yana Rafa vodiysiga kelib, jangga shay bo‘lib turishdi.
23 Dovud tag‘in Egamizning xohish–irodasini so‘radi. Egamiz esa shunday javob berdi:
“Old tomonidan hujum qilma. Ularning orqasiga aylanib o‘tgin–da, mumiyo daraxtlari
tomondan yaqinlashib bor. 24 Mumiyo daraxtlari tepasida Mening qadamim tovushlarini
eshitganing zahoti ularga hujum qil. O‘shanda Men Filist lashkarini yo‘q qilish uchun
sening qarshingdan chiqqan bo‘laman.”

25 Dovud, Egamiz amr berganiday qilib, Gebodan Gezer shahrigacha bo‘lgan joylarda
Filistlarni tor–mor qildi.

6–BOB

Dovud Ahd sandig‘ini Quddusga olib keladi

1 Dovud Isroil lashkaridan yana o‘ttiz ming saralangan odamlarini to‘pladi. 2 Dovud
o‘z odamlari bilan Yahudodagi Baalax shahriga* jo‘nadi. Uning maqsadi ikki karub*
orasida taxt qurgan Sarvari Olam — Xudoning Sandig‘ini olib kelish edi. 3-4 Xudoning
Sandig‘i Abunadavning tepalikdagi uyida* edi. Sandiqni yangi arava ustiga ortishdi.
Abunadavning o‘g‘illari Uzzox bilan Oxyo Sandiq ortilgan aravani haydab ketishdi. Oxyo
Sandiqning oldida borayotgan edi. 5 Dovud va jamiki Isroil xalqi Egamizning huzurida
berilib* o‘yin–kulgi qilayotgan edilar. Ular lira, arfa, childirma, shaqildoq va zillar chalib,
qo‘shiqlar bilan bu voqeani bayram qilayotgan edilar.

6 Noxun degan odamning xirmoniga yetib borganlarida, ho‘kizlar qoqilib ketdi.
Uzzox qo‘lini uzatib Xudoning Sandig‘ini ushlab qoldi. 7 Lekin Uzzox hurmatsizlik qilgani
uchun*, Egamiz undan g‘azablanib, o‘sha yerdayoq Uzzoxni urib, jonini oldi. Uzzox
Xudoning Sandig‘i yonginasida jon berdi. 8 Egamiz Uzzoxni nobud qilgani uchun, Dovud
qattiq g‘azablandi. O‘sha kundan buyon shu joy “Paraz–Uzzox”* deb aytiladi.

9 Dovud o‘sha kuni Egamizdan qo‘rqib: “Qanday qilib Egamning Sandig‘ini o‘zim
bilan olib kela olar ekanman?” deb o‘yladi. 10 Egamizning Sandig‘ini o‘zi bilan Dovud
qal’asiga olib borishni xohlamay, uni Gatlik* Obidadomning uyiga tashlab ketdi.
11 Egamizning Sandig‘i u yerda uch oy turdi. Egamiz Obidadomga va uning butun
xonadoniga baraka berdi.

12 “Egamiz O‘zining Sandig‘i uchun Obidadomning butun xonadoniga, unga qarashli
hamma narsaga marhamat qildi”, deb shoh Dovudga xabar yetkazishdi. Shunday qilib,
Dovud borib, Obidadomning uyidan Xudoning Sandig‘ini o‘z qal’asiga katta tantana bilan
olib keldi. 13 Egamizning Sandig‘ini olib borayotganlar olti qadam yurishganda, Dovud
bir buqa bilan bir bo‘rdoqi buzoqni qurbonlik qildi. 14 Dovud Egamizning huzurida
butun vujudi bilan o‘yinga tushardi. U o‘shanda ruhoniylarning muqaddas libosini* kiyib
olgan edi. 15 Dovud bilan butun Isroil xalqi sevinchli xitoblar, karnay sadolari ostida
Egamizning Sandig‘ini olib kelishardi.
16 Ular Egamizning Sandig‘ini Dovud qal’asiga olib kirishayotganda, Shoulning qizi
Mixal derazadan qarab turgan edi. U Egamizning oldida sakrab o‘ynayotgan shoh
Dovudni ko‘rdi–yu, o‘z ko‘nglida uni past ko‘rdi.
17 Dovud Egamizning Sandig‘i uchun bir chodir o‘rnatgan edi. Odamlar Sandiqni
o‘sha chodirning ichkarisiga olib kirib, maxsus tayyorlangan joyga qo‘yishdi. Keyin
Dovud Egamizga kuydiriladigan qurbonliklarni va tinchlik qurbonliklarini keltirdi. 18 U
qurbonliklar qilib bo‘lgandan keyin, Sarvari Olam nomidan xalqni duo qildi. 19 So‘ng
hammaga — erkagu ayolga, jamiki Isroil jamoasiga bir donadan gardish non, bir
hovuchdan xurmo* va bir hovuchdan mayiz* tarqatdi. Shundan keyin xalq uy–uyiga
tarqaldi.
20 Dovud o‘z oilasini duo qilgani uyiga kelganda, Shoulning qizi — Dovudning xotini
Mixal peshvoz chiqib, Dovudga shunday dedi:
— Bugun Isroil shohi qanday ajoyib shuhratga erishdi–ya! Xuddi bema’ni
odamlarday, sen yarim yalang‘och bo‘lib, a’yonlaringning cho‘rilari oldida o‘zingni
ko‘rsatding!
21 — Men Egam oldida o‘ynadim! — dedi Dovud. — U otang va uning butun
xonadonidan meni ortiq ko‘rgan, O‘z xalqi Isroilga meni rahnamo qilib tanlagan. Ha,
Egam oldida albatta o‘ynayman, 22 bundan buyon o‘zimni yana ham pastroq tutaman,
ularning oldida o‘zimni yanada ham kichik tutaman. Lekin bilib qo‘y, sen aytgan o‘sha
cho‘rilardan men sharaf topaman.
23 Shoulning qizi Mixal umrining oxirigacha befarzand o‘tdi.

7–BOB

Xudo Dovudga so‘z beradi

1 Shoh Dovud o‘z saroyida yashar edi, Egamiz esa uni to‘rt tarafdagi g‘animlaridan
omon saqlardi.
2 Shoh bir kuni Natan payg‘ambarga dedi:
— Qarang, men sadr yog‘ochidan qurilgan uyda yashayapman, Xudoning Sandig‘i esa
chodirda turibdi.
3 — Ko‘nglingda nima bo‘lsa, shuni qilaver, Egam sen bilan, — dedi Natan.
4 O‘sha kuni kechasi Natanga Egamizning so‘zi ayon bo‘ldi:

5 “Qulim Dovudning oldiga borgin–da, unga shu gaplarni yetkaz: «Egam
shunday aytmoqda: istiqomat qilishim uchun uyni Menga sen qurmaysan. 6 Isroil
xalqini Misrdan olib chiqqanimdan to shu kungacha biror uyda yashagan
emasman. U yerdan–bu yerga ko‘chib yurdim, chodirda maskan qildim. 7 Men

hech qachon Isroil xalqining rahnamolariga shikoyat qilmadim. Ularning zimmasiga xalqimga cho‘ponlik qilish vazifasini yuklagan bo‘lsam–da, hech qachon ularning birortasiga: ‘Nima uchun Menga sadr daraxti yog‘ochidan uy qurib bermadingizlar?’ deb aytmadim.»

8 Endi qulim Dovudga ayt: «Sarvari Olam shunday demoqda: Men seni
yaylovlardagi qo‘y suruvi orasidan tanlab olib, xalqim Isroilga hukmdor qildim.
9 Qayerga borsang, sen bilan bo‘ldim, hujum qilganingda, hamma g‘animlaringni
yo‘q qildim. Endi sening nomingni olamdagi ulug‘ odamlarning nomi singari
mashhur qilaman. 10-11 Xalqim Isroilga ilk hakamlarni tayinlaganimdan buyon
vijdonsiz odamlar bu xalqimni ezib keldilar. Endi xalqim Isroil uchun bir yurt
tayin etib, ularni o‘sha yerga o‘tqazaman. Ular o‘z yurtida istiqomat qilishadi,
boshqa behalovat bo‘lishmaydi. Seni hamma g‘animlaringdan tinch–omon
saqlayman. Men, Egang, sen uchun bir xonadon* yarataman, deb aytmoqdaman.
12 Sen olamdan o‘tib, ota–bobolaring yoniga dafn qilinganingdan keyin ham, Men
o‘g‘illaringdan birini, pushti kamaringdan bino bo‘lgan farzandingni shoh qilib,
uning shohligini mustahkamlayman. 13 Menga atab uyni u quradi. Men esa uning
shohlik taxtini to abad mustahkam qilaman. 14 Men unga ota bo‘laman, u esa
Menga o‘g‘il bo‘ladi. Agar gunoh qilsa, ota o‘g‘lini jazolaganday, Men ham uni
jazolayman. 15 Seni shoh bo‘lsin deb, Shoulni marhamatimdan mahrum qilgan
edim. Lekin o‘g‘lingdan hech qachon marhamatimni darig‘ tutmayman.
16 Xonadoning va shohliging Mening oldimda abadiy turadi, taxting to abad
mustahkam bo‘ladi.»”

17 Xudo ayon qilganlarning hammasini Natan Dovudga aytdi.

Dovudning shukrona ibodati

18 Shundan keyin shoh Dovud Egamizning huzurida o‘tirib*, shunday ibodat qildi:

“Ey Egam Rabbiy! Men kim bo‘libman, xonadonim nima bo‘libdiki, Sen meni
bu qadar ulug‘lading?! 19 Buning ustiga, ey Egam Rabbiy, Sen kelajak zamonda
yuz beradigan voqealardan xabar berib, bu qulingning xonadoni uchun ko‘p
va’da berding. Sening bu va’dalaring jamiki insonlarga tegishli bo‘lsin*, ey Egam
Rabbiy! 20 Men Senga ortiq nima deya olardim, Egam Rabbiy! Axir, bu qulingni
bilasan–ku. 21 Bergan va’dangga, O‘z xohishingga muvofiq, shunday ulug‘vor ish
qilding va bu qulingga ayon etding.

22 Naqadar ulug‘vorsan, ey Egam Rabbiy! Senga o‘xshagan boshqa xudo
haqida hech qachon eshitmaganmiz. Sening aslo o‘xshashing yo‘q, Sendan o‘zga
Xudo yo‘q! 23 Xalqing Isroilga o‘xshashi yo‘q! Ey Xudoyim, boshqa qaysi xalqni
Sen qullikdan xalos qilib, O‘zingning xalqing qilding?! Sen O‘z xalqingni Misrdan
olib chiqib, butun olamga shuhratingni yoyding. Buyuk va ajoyib ishlaring orqali
xalqing oldidan begona xalqlaru xudolarni quvding*. 24 Xalqing Isroilni to abad
O‘zingning xalqing qilding. Ey Egam, Sen ularning Xudosi bo‘lding.

25 Ey Parvardigor Egam! Bu qulingga va uning xonadoniga qarata aytgan
so‘zingda to abad tur, bergan va’dangni bajar, 26 toki odamlar, Sarvari Olam —
Isroil xalqining Xudosi ekan, deb nomingni to abad maqtab yursinlar. Ha, quling
Dovudning xonadonini O‘zing har doim mustahkam qilgin. 27 Ey Isroil xalqining

Xudosi — Sarvari Olam! Bu qulingga, sening xonadoningni barpo etaman, deb ayon etgansan! Shu sababdan bu quling Senga shunday deb ibodat qilishga jur'at etdi.

28 Ey Egam Rabbiy! Sen Xudosan, so‘zlaring — haq. Sen bu qulingga ana shunday ezgu narsalarni va'da qilgansan. 29 Agar O‘zing ma'qul ko‘rsang, bu qulingning xonadoniga marhamat qilgin, toki Sening huzuringda to abad tursin. Sen so‘z bergansan, ey Egam Rabbiy! Sening marhamating tufayli bu qulingning xonadoni to abad marhamatga sazovor bo‘lg‘ay."

8–BOB

Dovudning zafarlari

1 Birmuncha vaqt o‘tgach, Dovud yana Filistlarga hujum qilib, ularni mag‘lub qildi, shu tariqa yurtni ularning hukmronligidan ozod etdi*. 2 So‘ng Mo‘ab xalqini ham mag‘lub qildi. Asirlarni yerga qator qilib yotqizib, qatorni arqon bilan o‘lchay boshladi. Bir o‘lchab, tirik qoldirdi, ikki o‘lchab o‘ldirdi. Shunday qilib, Mo‘ab xalqining tirik qolganlari Dovudga qul bo‘lib, o‘lpon to‘laydigan bo‘lishdi.

3 Zo‘vo* shohi Hadadzar o‘z shohligini boshqatdan o‘rnatmoqchi bo‘lib, Furot daryosi bo‘ylariga yurish qilgan edi. Dovud uni ham tor–mor qildi. Hadadzar Rexob deganning o‘g‘li edi. 4 Dovud Hadadzarning 1700 nafar otliq, 20.000 nafar piyoda sipohini asirga oldi. O‘zining 100 ta jang aravasi uchun kerakli otlarni qoldirib, boshqa hamma otlarni mayib qildi.

5 Damashqdagi Oram xalqi Zo‘vo shohi Hadadzarga yordamga kelgan edi, Dovud ulardan 22.000 kishini o‘ldirdi. 6 So‘ng Damashqdagi Oram xalqining shaharlariga o‘zining qo‘nolg‘alarini joylashtirdi. Oram xalqi ham Dovudga qaram bo‘lib, o‘lpon to‘laydigan bo‘ldi. Shunday qilib, Dovud qayerga bormasin, Egamiz uni zafarga erishtirdi. 7 Dovud Hadadzarning a'yonlari ko‘tarib yuradigan oltin qalqonlarni qo‘lga kiritib, Quddusga keltirdi. 8 Yana Hadadzarning qo‘li ostidagi Tivxat* va Baro‘tay shaharlaridan ko‘p bronza olib keldi.

9 Xomat* shohi To‘ax "Dovud Hadadzarning butun lashkarini mag‘lub qilibdi", deb eshitib qoldi. 10 To‘ax shoh Dovudning huzuriga o‘g‘li Yoramni yuborib, uni qutladi, jangda Hadadzardan g‘olib kelgani uchun Dovudni olqishladi. To‘ax Hadadzar bilan uzoq vaqtdan beri urishib kelardi. Yoram Dovudga oltin, kumush, bronza idishlarni hadya qilib olib keldi. 11 Shoh Dovud bu in'omlarni bosib olgan yurtlardan keltirgan oltinu kumushlar bilan birga Egamizga nazr qildi. 12 Bular Edom, Mo‘ab, Ommon yurtlaridan, Filist va Omolek xalqlaridan olib kelingan, Zo‘vo shohi Hadadzardan olingan o‘ljalar edi.

13 Dovud Tuz vodiysida* Edom* xalqidan 18.000 kishini halok qilib qaytgandan so‘ng, yanada dong taratdi.

14 Edom yurtining hamma yeriga o‘z qo‘nolg‘alarini joylashtirdi. Edom xalqi Dovudga qaram bo‘ldi. Dovud qayerga bormasin, Egamiz uni zafarga erishtirdi.

15 Dovud butun Isroilda shohlik qilar ekan, xalqini odillik bilan boshqarardi.
16 Zeruya o‘g‘li Yo‘ab — lashkarboshi, Oxilud o‘g‘li Yohushafat — mushovir* edi.
17 Oxitob o‘g‘li Zodo‘x bilan Abuatar o‘g‘li Oximalek — ruhoniy, Sarayo mirza edi.
18 Yohayido o‘g‘li Binayo Xaretlik va Palatlik qo‘riqchilarning* boshlig‘i edi. Dovudning o‘g‘illari esa ruhoniy* edilar.

9–BOB

Dovud Mefibositga yaxshilik qiladi

1 Bir kuni Dovud:

— Shoul xonadonidan biror odam qoldimi? — deb so‘radi. — Agar bo‘lsa, Yo‘natanning haqi–hurmati unga yaxshilik qilayin.

2 Shoul xonadonida Zibax degan bir xizmatkor bor edi. Uni Dovudning huzuriga chaqirib kelishdi.

— Sen Zibaxmisan? — deb so‘radi shoh.

— Ha, janobi oliylari, menman, — dedi Zibax.

3 — Shoul xonadonidan birorta odam qolganmi? — deb so‘radi shoh. — Unga Xudoning marhamatini ko‘rsatayin.

— Yo‘natanning bir o‘g‘li bor, uning ikkala oyog‘i ham mayib*, — dedi Zibax.

4 — Qayerda u? — so‘radi shoh.

— Lo‘davorda, Omiyol o‘g‘li Moxirning uyida, — dedi Zibax.

5 Shoh Dovud Lo‘davordagi Moxirning uyidan Mefibositni o‘z huzuriga chaqirtirdi.
6 Shoulning nabirasi Mefibosit Yo‘natanning o‘g‘li edi. Mefibosit Dovudning huzuriga kelib, muk tushib ta’zim qildi.

— Mefibosit! — dedi Dovud.

— Qulingiz shu yerda, — deb javob berdi Mefibosit.

7 Dovud unga dedi:

— Qo‘rqma, otang Yo‘natanning haqi–hurmati uchun senga yaxshilik qilay. Bobong Shoulning hamma yerlarini senga qaytarib beraman. O‘zing esa har doim mening dasturxonimdan taom yeysan.

8 Mefibosit ta’zim qilib:

— Men, qulingiz, kim bo‘libmanki, o‘lik itga o‘xshagan mendek bir kimsaga yaxshilik qilyapsiz? — dedi.

9 So‘ng shoh Dovud Shoulning xizmatkori Zibaxni chaqirtirdi:

— Ilgari Shoulga va uning xonadoniga nima tegishli bo‘lsa, hammasini xo‘jayiningning nabirasi Mefibositga berdim, — dedi Dovud unga. 10 — Mefibosit uchun sen o‘g‘illaring va qullaring bilan birga yerga ishlov berib, hosil olinglar, toki xo‘jayiningning nabirasi ehtiyojiga yarasha oziq–ovqat bilan ta’minlansin. Xo‘jayiningning nabirasi Mefibosit har doim mening dasturxonimdan taom yeydi.

Zibaxning o‘n besh o‘g‘li va yigirmata quli bor edi.

Shunda Zibax shohga:

11 — Janobi oliylari bu quliga nima buyurgan bo‘lsalar, hammasini ijro etarman, — dedi.

Mefibosit, xuddi shoh farzandlarining biriday, shoh dasturxonidan* taom yeydigan bo‘ldi.

12 Mefibositning Mixa degan yoshgina o‘g‘li ham bor edi. Zibax xonadonida yashaganlarning hammasi Mefibositning xizmatkori bo‘ldi. 13 Mefibosit Quddusda istiqomat qilib qoldi va doim shoh dasturxonidan taom yedi. Uning ikkala oyog‘i ham cho‘loq edi.

10–BOB

Dovud Ommon va Oram xalqlarini bo‘ysundiradi

1 Oradan bir qancha vaqt o‘tgach, Ommon* shohi Naxosh olamdan o‘tib, o‘rniga o‘g‘li
Xanun shoh bo‘ldi. 2 Dovud: “Naxosh menga sodiq edi, men ham uning o‘g‘li Xanunga
sodiq bo‘layin”, deb ko‘nglidan o‘tkazdi. Shunday qilib, Dovud Xanunga otasining vafoti
munosabati bilan tasalli berish uchun o‘z elchilarini jo‘natdi.

Dovudning elchilari Ommon yurtiga borgach, 3 Ommon beklari o‘zlarining shohi
Xanunga shunday deb o‘rgatishdi: “Dovud bu odamlarini otangiz hurmati uchun
jo‘natgan, deb o‘ylaysizmi? Yo‘q, Dovud elchilarini sizning huzuringizga yomon niyat
bilan yuborgan, u shaharni kuzatib, tekshirib, keyin qo‘lga kiritmoqchi.”

4 Shu gapdan so‘ng Xanun Dovudning elchilarini ushladi, ularning soqollarining
yarmini qirqib, kiyimlarini sonlarigacha kestirib, orqaga qaytarib yubordi. 5 Dovud bu
voqeani eshitdi–yu, elchilarini kutib olish uchun odamlar jo‘natdi. Elchilar juda
sharmandali ahvolda qolgan edilar. Shoh o‘sha elchilariga: “Soqolingiz o‘sguncha
Yerixoda qolinglar, keyin mening oldimga qaytib kelinglar”, deb ayttirib yubordi.

6 Ommon xalqi “Endi Dovudning g‘azabiga duchor bo‘ldik”, deb o‘yladi. Ular har
tomonga xabar jo‘natib, Bayt–Rexob va Zo‘vo shaharlaridan Oram xalqining 20.000
sipohini, Maxo shahri shohidan 1000 nafar sipohni va Tov xalqidan 12.000 sipohni
yolladilar. 7 Dovud bu xabarni eshitdi–yu, lashkarboshi Yo‘ab boshchiligida
qo‘riqchilarining hammasini urushga safarbar qildi. 8 Ommon lashkari shahar darvozasi
oldida Dovudga qarshi saf tortdi. Rexob va Zo‘vodan kelgan Oram sipohlari, Tov va
Maxodan kelgan sipohlar esa yalanglikda saf tortdilar.

9 Yo‘ab g‘anim to‘dalari orqayu oldindan hujum qilayotganini ko‘rdi. U Isroilning
saralangan sipohlaridan tanlab oldi–da, Oram lashkariga qarshi saf torttirdi.
10 Qolganlariga esa ukasi Abushayni bosh qilib, Ommonlarga qarshi shay qilib qo‘ydi.
11 Yo‘ab Abushayga:

— Oram lashkari mendan ustun kelsa, sen yordamga kelasan, — dedi. — Bordi–yu,
Ommonlar sendan baland kelsa, men yordamga boraman. 12 Bardam bo‘l! Xalqimiz va
Xudoyimizning shaharlari uchun mardlarcha kurash olib boraylik. Egamizning xohish–
irodasi bajo bo‘lsin.

13 Yo‘ab boshchiligidagi sipohlar Oram lashkariga qarshi tashlandilar. Oram lashkari
esa ularning oldiga tushib qochib qoldi. 14 Ularning qochganini ko‘rgan Ommonlar ham
Abushaydan qochib, shaharga berkindilar. Shundan keyin Yo‘ab ular bilan jang qilmay,
Quddusga qaytib ketdi.

15 Oram lashkari Isroil lashkaridan yengilganini anglab yetganidan so‘ng, yana bir
joyga to‘planishdi. 16 Shoh Hadadzar Furot daryosining narigi tomonidagi o‘z lashkariga
xabar berib, ularni chaqirtirdi. Oram lashkari Hadadzarning lashkarboshisi Sho‘vax
boshchiligida Xelam shahriga keldi. 17 Dovud bu voqeani eshitib, jamiki Isroil lashkarini
yig‘di, Iordan daryosini kechib o‘tib, Xelamga yetib bordi. Oram lashkari saf tortib,
Dovud lashkari bilan jang qildi. 18 Ammo Oram lashkari yana Isroil lashkarining oldiga
tushib qochib qoldi. Dovud Oram lashkarining 700 ta jang aravasi aravakashini va
40.000 nafar otliq sipohini o‘ldirdi. U Hadadzarning lashkarboshisi Sho‘vaxni ham
yaralagan edi, Sho‘vax jang maydonidayoq jon berdi.

19 Shunday qilib, Hadadzarning qo‘li ostidagi hamma shohlar mag‘lubiyatga uchrab,

Isroil xalqi bilan sulh tuzishga majbur bo‘ldi. Ular Isroil xalqiga qaram bo‘lib qoldi. Shundan keyin Oram xalqi Ommon xalqiga yordam berishdan qo‘rqib qoldi.

11–BOB

Dovud bilan Botsheva

1 Bahor boshlanib, shohlar urushga ketadigan payt ham bo‘ldi. Dovud
lashkarboshilariga va butun Isroil qo‘shiniga Yo‘abni bosh qilib, urushga yubordi. Ular
Ommon lashkarini yakson qilib, Rabba shahrini* qamal qilishdi. Dovudning o‘zi
Quddusda qolgan edi.
2 Bir kuni oqshom payti Dovud yotog‘idan chiqdi–da, saroy tomiga ko‘tarilib*
shaharni tomosha qila boshladi. Birdan cho‘milayotgan bir ayolni ko‘rib qoldi. Ayol juda
go‘zal edi. 3 Dovud bittasiga:
— Borib bil–chi, u kim ekan, — deb jo‘natdi. O‘sha odam qaytib kelib:
— U ayol Eliyomning qizi, Xet xalqidan bo‘lgan Uriyoning xotini, ismi Botsheva ekan,
— dedi.
4 Dovud: “Ayolni olib kelinglar”, deb xizmatkorlarini jo‘natdi. Ayolni Dovudning
huzuriga olib kelishdi. Ayol hayz ko‘rgan bo‘lib, tozalanish rasm–rusumlarini endi
tugatgan ekan*. Dovud u bilan birga bo‘ldi. Keyin ayol uyiga qaytdi. 5 Ayol homilador
bo‘lganini bildi va bu haqda Dovudga xabar berdi.
6 Dovud Yo‘abga, Xet xalqidan bo‘lgan Uriyoni mening oldimga yubor, deb xabar
yo‘lladi. Yo‘ab Uriyoni Dovudning oldiga jo‘natdi. 7 Uriyo kelgandan keyin, Dovud undan
Yo‘ab va sipohlarning ahvolini, urushning qanday borayotganini so‘radi. 8 So‘ng Uriyoga:
— Uyingga bor, dam ol, — dedi.
Uriyo saroydan chiqqach, shoh uning orqasidan hadyalar jo‘natdi. 9 Lekin Uriyo
uyiga ketmadi, shohning soqchilari bilan birga saroy darvozasi yonida uxlashga qoldi.
10 Dovudga, Uriyo uyiga ketmabdi, deb xabar yetkazishdi. Dovud Uriyodan:
— Sen safardan kelding–ku, nega uyingga bormading? — deb so‘radi. 11 Uriyo
shunday javob berdi:
— Xudoning Sandig‘i ham, Isroil va Yahudo sipohlari ham chodirlarda qoldi,
lashkarboshim Yo‘ab bilan janobi oliylarining odamlari yap–yalang maydonda chodir
tikib yotishibdi. Ahvol shunaqaligini bila turib, men yeb–ichish, xotinim bilan birga
bo‘lish uchun uyimga borsam yaxshi bo‘lmas. Ont ichib aytamanki, zinhor bunday ish
qilmayman.
12 Shundan keyin Dovud:
— Bugun shu yerda qol, ertaga seni jo‘natib yuboraman, — dedi.
Uriyo o‘sha kuni Quddusda qoldi. 13 Ertasiga Dovud Uriyoni yana chaqirib, yedirib–
ichirdi. Uriyo mast bo‘lib qoldi. Kech kirgach, Uriyo tag‘in uyiga ketmay, shoh soqchilari
yonidagi o‘rnida uxladi.
14 Ertasiga ertalab Dovud Yo‘abga bir maktub yozib, Uriyo orqali berib yubordi.
15 Maktubning mazmuni shunday edi: “Uriyoni urush qizigan joyga yuborgin–da, bir
o‘zini qoldir, toki u yaralanib halok bo‘lsin.”
16 Yo‘ab shaharni qurshab olgan edi. Uriyoni g‘animning kuchli lashkari egallagan
yerga yubordi. 17 G‘anim lashkari shahardan chiqib kelib, Yo‘abning sipohlari bilan jang
qildi. G‘anim lashkari Dovudning odamlaridan ba’zilarini o‘ldirdi, Xet xalqidan bo‘lgan

Uriyo ham o‘ldirildi.

18 Yo‘ab urushning borishi haqida Dovudga xabar berish uchun bir odamni
jo‘natayotib, 19 unga shunday deb tayinladi:

— Sen urushga oid hamma xabarlarni shohga ayt. 20 Lekin shoh g‘azablanib, senga
shunday deb aytib qolishi mumkin: “Ular bilan jang qilish uchun nimaga shaharga
bunchalik yaqin bordingizlar? Ular shahar devoridan turib o‘q otishlarini
bilmasmidingizlar? 21 Gido‘nning* o‘g‘li Abumalekni kim o‘ldirgan edi? Esingizda yo‘qmi,
Tavozda bir ayol Abumalekning ustiga devor tepasidan tegirmon toshini tashlab
yuborib o‘ldirgandi–ku! Shunday ekan, nima uchun devorga bunchalik yaqin
bordingizlar?” Agar shu gaplarni aytsa, sen: “Qulingiz Uriyo ham o‘ldi”, deysan.

22 Xabarchi jo‘nab ketdi. Dovudning huzuriga yetib borgach, Yo‘ab nima deb
buyurgan bo‘lsa, hammasini oqizmay–tomizmay shohga aytib berdi:

23 — Ommonlar bizdan ustun keldi, shahardan chiqib biz bilan dashtda jang qildi.
Keyin ularni shahar darvozasigacha quvib bordik. 24 Shu paytda Ommonlarning
merganlari shoh hazratlarining odamlarini devordan turib o‘qqa tutishdi.
Odamlaringizdan ba’zilari o‘ldi, qulingiz Uriyo ham o‘ldi, — dedi.

25 — Yo‘abga ayt, — dedi Dovud xabarchiga. — Ro‘y bergan hodisadan uning ko‘ngli
cho‘kmasin. Jang qurbonsiz bo‘lmaydi. Shaharga hujumni kuchaytirib, yer bilan yakson
qilsin. Shunday deb, unga dalda ber.

26 Uriyoning xotini erining halok bo‘lganini eshitib, aza tutdi. 27 Aza muddati
tugagach, Dovud ayolni saroyga oldirib keldi. Ayol Dovudga turmushga chiqdi va bir
o‘g‘il tug‘di.

Biroq Dovudning bu qilmishi Egamizga ma’qul kelmadi.

12–BOB

Natan payg‘ambar Dovudni koyiydi

1 Egamiz Natan payg‘ambarni Dovudning huzuriga jo‘natdi. Natan Dovudning
huzuriga kelib, gap ochdi:

— Bir shaharda ikki odam yashar ekan. O‘sha odamlardan biri boy, boshqasi
kambag‘al ekan. 2 Boyning juda ko‘p mol–qo‘ylari bor ekan. 3 Kambag‘alning esa
bittagina sotib olib boqayotgan sovliq qo‘zichoqdan boshqa hech narsasi yo‘q ekan.
Qo‘zichoq kambag‘al odamning uyida bolalar bilan birga katta bo‘layotgan ekan.
Qo‘zichoq uning taomidan yeb, idishidan suv ichar, qo‘ynida uxlarkan. Qisqasi, qo‘zichoq
o‘sha odamning qiziday ekan. 4 Bir kuni boy odamning uyiga bir yo‘lovchi tashrif
buyuribdi. Boy mehmonga taom hozirlash uchun o‘zining mol–qo‘ylaridan bittasini ham
so‘yishga ko‘zi qiymabdi–da, kambag‘alning qo‘zisini so‘yib, mehmonga taom hozirlabdi.

5 Dovud boy odamning ishidan qattiq g‘azablandi:

— Xudo shohid! Shunday ish qilgan odam o‘limga loyiqdir! — dedi Natanga. 6 —
Bag‘ritoshlik qilib, shunday ish qilgani uchun u qo‘zichoq evaziga to‘rtta qo‘y to‘lashi
lozim.

7 Shu gapdan keyin Natan Dovudga:

— O‘sha odam sensan! — dedi. — Isroil xalqining Xudosi — Egam shunday
aytmoqda: “Men senga moy surtib Isroilga shoh qildim, Shoulning qo‘lidan xalos etdim.
8 Senga xo‘jayiningning xonadonini in’om qildim, xotinlarini qo‘yningga solib qo‘ydim.

Isroil va Yahudo xalqini senga berdim. Agar bular oz boʻlsa edi, yana nimalarni bermasdim! 9 Nega Mening oldimda qabihlik qilib, soʻzimni pisand qilmading? Xet xalqidan boʻlgan Uriyoni oʻldirding, ha, Ommonlarning qilichi bilan jonini olding. Xotinini esa tortib olding. 10 Meni pisand qilmaganing uchun, Uriyoning xotinini tortib olganing uchun bundan buyon qilich sening xonadoningga doim xavf solib turadi.”
11 Egam shunday aytmoqda: “Oʻzingning xonadoningdan oʻzingga yomonlik keltiraman. Koʻz oʻngingda xotinlaringni yaqinlaringdan biriga beraman. Oʻsha yaqining kuppa–kunduzi xotinlaringning qoʻyniga kiradi. 12 Ha, sen bu ishni yashirincha qilding, Men esa, butun Isroil xalqi koʻrsin deb, kuppa–kunduzi qilaman.”

13 — Egam oldida gunoh qildim! — dedi Dovud Natanga.

— Egam gunohingdan oʻtdi, oʻlmaysan, — dedi Natan. 14 — Biroq sen shu ishni qilib, Egamizni mensimaganing uchun* tugʻilgan bolang nobud boʻladi.

15 Natan shu gaplarni aytib, uyiga ketdi.

Dovudning oʻgʻli vafot etadi

Uriyoning xotini Dovuddan farzand koʻrgan edi. Egamiz esa oʻsha bolani ogʻir xastalikka mubtalo qildi. 16 Dovud oʻgʻli uchun Xudoga iltijo qilib, roʻza tutdi, uyiga borib kechalari koʻkragini zaxga berib yotaverdi. 17 Saroy oqsoqollari uni yerdan turgʻizmoqchi boʻlishsa ham, Dovud turmadi, ular bilan birga taom ham yemadi.

18 Yettinchi kuni bola olamdan oʻtdi. A’yonlar, bolangiz olamdan oʻtdi, deb xabar berishga qoʻrqishdi. “Bola tirik paytida, biz shoh bilan suhbatlashdik, ammo u bizning gapimizga quloq solmadi”, deyishdi oʻzaro. “Bolangiz vafot etdi, deb shohga qanday aytamiz? U oʻzini oʻzi biror narsa qilib qoʻyishi mumkin.”

19 Dovud a’yonlarining oʻzaro shivir–shivir qilayotganlarini eshitib, bolasining nobud boʻlganini bildi.

— Bolam nobud boʻldimi? — deb soʻradi ulardan.

— Ha, nobud boʻldi, — deyishdi a’yonlar.

20 Shundan keyin Dovud yerdan turdi. Yuvinib, xushboʻy moy surtdi va kiyimlarini almashtirdi. Egamizning uyiga borib, sajda qildi. Soʻng uyiga qaytib kelib:

— Menga taom keltiringlar, — deb buyurdi. Dovud oldiga qoʻyilgan taomni yedi.
21 Shunda a’yonlari soʻrashdi:

— Nimaga bunday qilyapsiz? Bola tirikligida roʻza tutdingiz, yigʻladingiz, u nobud boʻlgandan soʻng esa, oʻrningizdan turdingiz, taom yedingiz.

22 Dovud shunday javob berdi:

— Ha, bolam tirikligida roʻza tutdim, yigʻladim. Kim biladi, Egam menga shafqat qilar, bolam tirik qolar, deb oʻylagan edim, 23 lekin endi bolam nobud boʻldi. Shunday boʻlgach, nega roʻza tutayin?! Bolani qaytarib olib kela olarmidim?! Men uning yoniga boraman, lekin u mening oldimga qaytib kelmaydi.

Sulaymonning tugʻilishi

24 Dovud xotini Botshevaga tasalli berdi, qoʻyniga kirib, u bilan qovushdi. Botsheva bir oʻgʻil tugʻdi. Dovud bolaga Sulaymon deb ism qoʻydi. Egamiz ham bolani yaxshi koʻrib suydi 25 va bu haqda Natan paygʻambar orqali xabar berdi. Egamiz bolani sevgani uchun, Natan unga Yodidayo* deb ism qoʻydi.

Dovud Rabba shahrini qoʻlga kiritadi

26 Bu paytda Yoʻab Ommonlarning Rabba shahriga hujumni davom ettiraverdi.

Nihoyat, shaharning shoh saroyi joylashgan qal'asini bosib oldi. 27 Keyin Dovudga choparlar orqali shunday xabar jo'natdi: "Rabba shahriga hujum qilib, hovuzni qo'lga kiritdim. 28 Endi qolgan sipohni boshlab keling, shaharni siz o'rab, bosib oling, toki shaharni men qo'lga kiritgan bo'lmayin, aks holda, shaharni Yo'ab olgan deb aytib yurishadi."

29 Dovud hamma sipohlarini to'plab, Rabba shahriga yo'l oldi. U shaharga hujum qilib, qo'lga kiritdi. 30 Ommon shohining boshidagi tojini* ham oldi. Qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan, og'irligi ikki pud* keladigan bu oltin toj Dovudning boshiga kiydirildi. Dovud shahardan katta miqdorda o'lja yig'di. 31 U shahar aholisini arra, cho'kich va bolta bilan bajariladigan ishlarga, g'isht tayyorlashga majbur qildi. Dovud Ommon shaharlarining hammasida shu usulni qo'lladi. Shundan keyin u jamiki lashkarini boshlab, Quddusga qaytib ketdi.

13–BOB

Omno'n bilan Tamara

1 So'ngra shunday hodisa sodir bo'ldi: Dovudning Omno'n* va Absalom degan o'g'illari bor edi. Uning Tamara degan go'zal bir qizi ham bor edi. Tamara Absalomning tug'ishgan singlisi bo'lib, Omno'nga o'gay edi. 2 Omno'n o'gay singlisi Tamarani deb azob chekaverib, kasal bo'lib qoldi. Tamara hali bokira bo'lgani uchun, Omno'n unga biror narsa qilishga ojiz edi.

3 Omno'nning Yonadav degan do'sti bor edi. Yonadav Dovudning akasi Shimoning* o'g'li bo'lib, juda ayyor yigit edi. 4 Bir kuni Yonadav Omno'nga dedi:

— Ey shahzoda, nimaga kundan–kunga ozib–to'zib ketyapsan? Menga ham sababini ayt–chi.

— O'gay akam Absalomning singlisi Tamarani sevib qoldim, — dedi Omno'n.

5 — To'shakka mixlanib, o'zingni kasalga sol, — dedi Yonadav. — Otang seni ko'rgani kelganda, unga: "Marhamat qilib, singlim Tamara kelib menga biron taom bersin, taomni ko'z oldimda tayyorlaganini men ko'rayin va uning qo'lidan taom yeyayin", deb aytasan.

6 Xullas, Omno'n to'shakka mixlanib, o'zini kasalga soldi. Shoh uni ko'rgani keldi.

— Marhamat qilib, singlim Tamara kelib, oldimda ikki dona non yopsin, men uning qo'lidan non yeyayin, — dedi Omno'n.

7 Tamara saroyda yashardi. Dovud unga: "Akang Omno'nning uyiga borib, unga non yopib ber", deb ayttirib yubordi.

8 Tamara o'gay akasi Omno'nning uyiga bordi. Omno'n to'shakda yotgan ekan. Tamara xamir qorib, akasining ko'zi oldida non yopdi. 9 Tovadagi nonni olib kelib, Omno'nning oldiga qo'ygan edi, u yemadi. Omno'n:

— Huzurimdan hamma chiqib ketsin! — deb buyruq berdi, uyda hech kim qolmadi.

10 Shundan keyin Omno'n Tamaraga:

— Taomni yotoqxonamga olib kir, sening qo'lingdan yeyayin, — dedi. Tamara o'zi yopgan nonlarni akasi Omno'nning yotoqxonasiga olib kirdi. 11 Yeng, deb nonni akasiga yaqin olib borgan edi, Omno'n birdan Tamaraga yopishib:

— Kel, men bilan birga bo'l, singlim! — dedi.

12 — Yo'q, aka, meni zo'rlamang! — dedi Tamara. — Isroilda bunaqa qilishmaydi–ku!

Bunday qabih ishni qilmang! 13 Bunday sharmandalikdan keyin men qanday bosh
koʻtarib yuraman?! Siz esa Isroildagi razil odamlardan bittasi boʻlib qolasiz. Shohga
aytsangiz, u meni sizdan ayamaydi–ku!
14 Lekin Omnoʻn Tamaraning gapiga quloq solmadi. Omnoʻn Tamaradan kuchliroq
edi, Tamarani zoʻrlab yotqizib, nomusiga tegdi. 15 Keyin Omnoʻn Tamaradan shunday
nafratlanib ketdiki, unga boʻlgan nafrati ardoqlagan sevgisidan kuchli edi.
— Tur, joʻna! — dedi u Tamaraga.
16 — Yoʻq! — dedi Tamara. — Meni haydayapsiz, lekin bu ishingiz menga qilgan
hozirgi gunohingizdan ogʻirroqdir.
Biroq Omnoʻn uning gapiga quloq solmadi. 17 Xizmatkorini chaqirib:
— Bu xotinni huzurimdan haydab chiqarib, eshikni yop! — dedi.
18 Xizmatkor Tamarani tashqariga haydab chiqarib, orqasidan eshikni yopdi. Tamara
uzun, chiroyli gulli libos* kiygan edi. Shohning turmushga chiqmagan qizlari shunday
kiyinishardi. 19 Tamara qaygʻudan boshiga kul sochib, ustidagi uzun libosini yirtib
tashladi*. Uyatdan yuzini qoʻli bilan toʻsib, faryod solganicha ketdi. 20 Akasi Absalom
undan:
— Akang Omnoʻn sen bilan boʻldimi? — deb soʻradi. — Mayli, singlim, bu haqda
birortasiga ogʻiz ocha koʻrma! Axir, u akang–ku! Bu voqeani koʻnglingga olma.
Shundan soʻng Tamara akasi Absalomning uyida yashab yuraverdi. U doimo yolgʻiz,
gʻamgin edi. 21 Shoh Dovud boʻlib oʻtgan voqeani eshitib, qattiq gʻazablandi. 22 Absalom
esa singlisi Tamaraning nomusini bulgʻagani uchun Omnoʻndan qanchalik nafratlansa
ham, unga biror marta na yaxshi, na yomon gap qildi.

Absalom Omnoʻnni oʻldiradi

23 Ikki yildan keyin Absalom shohning hamma oʻgʻillarini Baal–Xazorga ziyofatga
taklif qildi. Baal–Xazor Efrayim shahri yaqinida boʻlib, bu yerda Absalom qoʻylarining
junini qirqtirayotgan edi*. 24 Absalom shohning huzuriga kelib:
— Qoʻylarimning junini qirqtiryapman, marhamat qilib, shoh aʼyonlari bilan birga
men, qulingizga hamroh boʻlsinlar, — dedi.
25 — Biz hammamiz borsak, senga yuk boʻlamiz, oʻgʻlim, — dedi shoh Dovud.
Absalom qancha iltimos qilmasin, shoh, bora olmayman, deb unamadi, bormasa ham,
oʻgʻlini duo qildi.
26 — Boʻlmasa, ijozat bersangiz, akam Omnoʻn biz bilan borsin, — dedi Absalom.
— Omnoʻn nimaga sen bilan borishi kerak? — deb soʻradi shoh. 27 Absalom iltimos
qilavergandan keyin, shoh Omnoʻnni va boshqa oʻgʻillarini u bilan birga joʻnatdi.
28 Absalom xizmatkorlariga shunday buyruq bergan edi:
— Qarab turinglar, Omnoʻn sharob ichib, sarxush boʻlishini kutinglar. Sizlarga
“Omnoʻnni uring”, deb aytishim bilanoq, uni oʻldirasizlar. Qoʻrqmanglar, sizlarga men
buyruq beryapman. Dadil, mard boʻlinglar!
29 Xizmatkorlar Absalomning buyrugʻini ijro etib, Omnoʻnni oʻldirdilar. Shohning
qolgan oʻgʻillari esa xachirlariga minib qochib qolishdi. 30 Ular yoʻlda ketayotganlarida,
“Absalom shohning hamma oʻgʻillarini oʻldiribdi, birortasi ham tirik qolmabdi” degan
xabar Dovudning qulogʻiga yetdi. 31 Shoh oʻrnidan turdi–da, qaygʻudan kiyimlarini yirtib,
oʻzini yerga otdi. Uning yonidagi barcha aʼyonlari ham kiyimlarini yirtishdi.
32 Dovudning Shimo degan akasining oʻgʻli Yonadav shunday dedi:

— Shoh hazratlari, hamma o‘g‘illarimdan ayrilibman, deb o‘ylamasinlar, faqat Omno‘n o‘ldi, xolos. U o‘gay singlisi Tamaraning nomusiga tekkandan buyon Absalom Omno‘nni o‘ldirishga qasd qilib yurardi. 33 Shoh janobi oliylari, hamma o‘g‘illaringiz o‘ldirilibdi degan xabardan xavotirga tushmasinlar. Faqat Omno‘n o‘lgan, xolos.

34 Absalom o‘sha zahoti qochib ketdi. Quddus devori ustidagi soqchi g‘arb tomondan* shaharga qarab kelayotgan bir to‘p olomonni ko‘rdi. 35 Yonadav shohga:

— Ana, o‘g‘illaringiz kelishyapti, men, qulingiz, aytganday bo‘ldi, — dedi. 36 U gapini tugatar–tugatmas, shohning o‘g‘illari yetib kelib, faryod ko‘tarishdi. Shoh ham, a’yonlar ham ho‘ng–ho‘ng yig‘lab ko‘z yosh to‘kishdi.

37-38 Absalom qochib ketib, Gashur shohi Talmayning* yoniga bordi va u yerda uch yil qolib ketdi. Talmay Omihud deganning o‘g‘li edi. Shoh Dovud esa o‘g‘li Omno‘n uchun uzoq vaqt motam tutdi. 39 Dovud Omno‘nning o‘limidan tasalli topgandan keyin, Absalomni sog‘ina boshladi*.

14–BOB

Absalom Quddusga qaytib keladi

1 Shoh Dovud Absalomni sog‘inayotganini Yo‘ab bildi. 2 U bittasini Taxuva shahriga* yuborib, u yerda yashaydigan bir donishmand ayolni chaqirtirib keldi. Yo‘ab o‘sha ayolga:

— Sendan bir iltimosim bor, — dedi. — Motamsaro qiyofaga kirib, aza kiyimlaringni kiyasan. Pardoz qilma, o‘zingni xuddi marhumga anchadan beri aza tutayotgan ayolday ko‘rsat. 3 Men senga nima aytsam, shoh huzuriga borib, unga yetkazasan.

Keyin Yo‘ab ayolga nimalar aytishi lozimligini o‘rgatdi. 4 Taxuvalik ayol shoh huzuriga yo‘l oldi. Uning huzuriga borib, muk tushib ta’zim qildi–da:

— Ey shohim, yordam bering! — dedi.

5 — Nima bo‘ldi? — deb so‘radi shoh.

— Men bir baxtsiz tul ayolman, — dedi u. — Erim o‘lgan. 6 Bu cho‘ringizning ikki o‘g‘li bor edi. Ikkovi dalada janjallashib qolishibdi. O‘sha yerda ularni ajratib qo‘yadigan biror kimsa yo‘q ekan, bittasi ikkinchisini urib o‘ldirib qo‘yibdi. 7 Endi esa butun qavmim bu cho‘ringizga qarshi chiqib: “Birodarini o‘ldirganni bizning qo‘limizga ber, birodarini o‘ldirgani uchun undan qasos olamiz, qotilni o‘ldiramiz, merosxo‘rini yo‘q qilamiz”, deyishyapti, oxirgi umid nishonamdan ham ayirishmoqchi. Agar yana fojia yuz beradigan bo‘lsa, yer yuzida erimning nomini davom ettiradigan biror kimsa qolmaydi–ku.

8 — Uyingga boraver, — dedi shoh, — men sening foydangga amr beraman.

9 — Shoh hazratlari, bu voqeaga men va otamning xonadoni aybdor bo‘lsin, — dedi Taxuvalik ayol, — shohim va uning taxti begunoh bo‘lsin.

10 — Kim senga biror narsa desa, uni mening oldimga boshlab kel. Shunday qilayinki, o‘sha odam seni boshqa xafa qilmaydigan bo‘lsin, — dedi shoh.

11 — Bo‘lmasa, shohim o‘zlarining Egasi Xudo nomi bilan ont ichsinlar, toki qasoskorlar yana ziyon–zahmat yetkazmasin, — dedi ayol. — Aks holda, o‘g‘limni o‘ldirib qo‘yishadi.

— Xudo shohid! O‘g‘lingning bir tola sochiga ham zarar yetmaydi, — dedi shoh.

12 — Endi ijozat bersangiz, bu cho‘ringiz shoh hazratlariga yana bir og‘iz gap

aytmoqchi edi, — dedi ayol.

— Ayt, — dedi shoh. 13 Ayol gapini davom ettirdi:

— Bo‘lmasa, nima uchun shoh Xudoning xalqiga qarshi bunday nohaqlikni ravo ko‘rayotirlar? Shohim haligi gapi bilan o‘zlarini gunohkor qilganday bo‘ldilar. Chunki, shohim, o‘zingiz quvg‘in qilgan odamni qaytarmayapsiz. 14 Tuproqqa to‘kilgan suvni qayta yig‘ib bo‘lmaganiday, hammamiz ham olamdan o‘tib ketamiz. Lekin Xudo jonimizni olishni istamaydi. Xudo “Badarg‘a qilingan odam O‘zimdan uzoq ketmasin”, deb yo‘llarini qidiradi. 15 Odamlar meni qo‘rqitgani uchun shoh hazratlariga shularni aytib berishga keldim. O‘zimga o‘zim aytdim: “Shohga maslahat solay–chi, balki bu cho‘risining tilagini bajo aylar. 16 O‘g‘lim bilan meni o‘ldirib, bizni Xudo bergan merosdan mahrum qiladiganning qo‘lidan qutqarishni faqat shoh o‘z zimmasiga olishi mumkin. 17 Shoh hazratlari o‘z so‘zi bilan meni tinchlantiradilar. Chunki shohim, Xudoning farishtasi kabi yaxshi–yomon gapni tinglab, ajrim qiladilar.” Egangiz Xudo sizga yor bo‘lsin!

18 — Sendan bir narsani so‘rayman, lekin mendan hech narsani yashira ko‘rma! — dedi shoh.

— So‘rasinlar, shoh hazratlari, — dedi ayol.

19 — Bu aytganlaringning hammasida Yo‘abning qo‘li bormi? — deb so‘radi shoh. Ayol unga shunday javob berdi:

— To‘g‘risi, shoh hazratlari, sizdan hech narsani yashirib bo‘lmas ekan! Ha, bu cho‘ringizga shu gaplarni o‘rgatgan va buyruq bergan — qulingiz Yo‘ab bo‘ladi. 20 Ha, qulingiz Yo‘ab vaziyatni yaxshilash uchun o‘ylab topdi buni. Shoh hazratlari Xudoning farishtasi kabi donodir, el–yurtda bo‘lib o‘tgan voqealar uning nazaridan chetda qolmaydi.

21 Shundan keyin shoh Yo‘abga:

— Sen istaganingday bo‘la qolsin, bor, anavi yigitni — Absalomni qaytarib kel, — dedi.

22 Yo‘ab muk tushib ta’zim qildi va:

— Ey shoh hazratlari, bugun men, qulingizning istagini bajo aylab, menga iltifot ko‘rsatayotganingizni bilib turibman, — deb shohni maqtadi.

23 Shundan keyin Yo‘ab Gashurga borib, Absalomni Quddusga olib keldi. 24 Lekin shoh: “Absalom uyiga borsin, mening huzurimga kelmasin”, deb amr berdi. Shuning uchun Absalom shohni ko‘ra olmay, uyiga ketdi.

25 Butun Isroilda Absalom kabi chiroyli, kelishgan odam yo‘q edi. U boshdan–tirnog‘igacha benuqson edi. 26 Sochini ko‘tarib yurish og‘irlik qilgani uchun har yil oldirardi. Oldirgan sochini tortib ko‘rganda, sochining og‘irligi shohlikdagi o‘lchov bo‘yicha besh yuz misqol* chiqardi. 27 Absalomning uch o‘g‘li va Tamara degan go‘zal bir qizi bor edi.

28 Absalom Quddusda ikki yil turdi. Lekin shu vaqt davomida shohni ko‘ra olmadi. 29 Nihoyat, Yo‘abni shoh huzuriga jo‘natmoqchi bo‘lib, bu haqda unga xabar berdi. Ammo Yo‘ab Absalomnikiga kelishni istamadi. Absalom ikkinchi marta xabar yubordi. Yo‘ab yana kelmadi. 30 Shunda Absalom xizmatkorlariga:

— Ko‘ryapsizlarmi, Yo‘abning arpa dalasi menikiga yondosh. Boringlar, uning arpasiga o‘t qo‘yinglar, — dedi.

Xizmatkorlar borib, Yo‘abning arpasiga o‘t qo‘yishdi. 31 Shunda Yo‘ab Absalomning

uyiga bordi.

— Nimaga xizmatkorlaring dalamga o‘t qo‘ydi? — dedi. 32 Absalom unga shunday javob berdi:

— Senga, menikiga kel, seni shoh huzuriga jo‘nataman, deb xabar bergan edim. Sen orqali shohga: “Gashurdan nega keldim? Qaytanga o‘sha yerda qolganimda, menga yaxshiroq bo‘lardi” degan gaplarni yetkazmoqchi edim. Endi shoh huzuriga boray. Agar mening aybim bo‘lsa, o‘ldirsin.

33 Shundan so‘ng Yo‘ab shoh huzuriga borib, Absalomning aytganlarini unga yetkazdi. Shoh Absalomni chaqirtirdi. Absalom shoh huzuriga kela solib, muk tushib ta’zim qildi. Shoh Absalomni o‘pdi.

15–BOB

Absalom Dovudga qarshi bosh ko‘taradi

1 Absalom o‘zi uchun bitta jang aravasi, otlar va ellikta qo‘riqchini tayyorlab qo‘ydi. 2 U ertalab turib, shahar darvozasiga boradigan yo‘l bo‘yida turadigan bo‘ldi. Janjalli ish bilan shoh huzuriga arz qilib kelayotgan har bir odamni Absalom to‘xtatib:

— Qayerliksan? — deb so‘rardi. O‘sha odam: “Isroilning falon qabilasidanman”, deb javob berardi. 3 Absalom esa unga:

— Qara, da’volaring to‘g‘ri, sen haqsan. Lekin sening gapingga quloq soladigan, shoh tayinlagan biror vakil yo‘q, — derdi. 4 Keyin: — Agar yurtga men hakam bo‘lganimda edi, — deb qo‘shib qo‘yardi, — shikoyat yoki biror masala bilan mening oldimga kelgan odamga adolat qilardim.

5 Birortasi uning oldiga muk tushib, ta’zim qilib kelishi bilanoq, Absalom o‘sha odamni turg‘izib, o‘pib qo‘yardi. 6 Shoh huzuriga shikoyat qilib kelgan Isroil xalqining hammasiga Absalom shunday muomala qilardi. Xullas, Absalom shu yo‘sinda Isroil xalqini o‘ziga og‘dirib oldi.

7 Oradan to‘rt yil* o‘tgach, Absalom shohga dedi:

— Ijozat bersangiz, men Xevronga borib, Egamga atagan nazrimni ado etayin. 8 Chunki men, qulingiz, Oramda — Gashur yurtida yashayotganimda, Egam meni Quddusga qaytarsa, albatta Xevronga borib Unga sajda qilaman, deb nazr atagan edim.

9 — Eson–omon bor! — dedi shoh Absalomga.

Absalom Xevronga borgan zahoti 10 hamma Isroil qabilalariga maxfiy xabarchilar jo‘natib, ularga shunday dedi: “Burg‘u ovozini eshitishingiz bilanoq, Absalom Xevronda shoh bo‘ldi, deb ovoza qilasizlar.” 11 Absalom Quddusdan taklif qilgan ikki yuz kishi u bilan birga Xevronga borgandi. Taklif qilingan odamlar, bo‘lib o‘tgan voqealardan bexabar, yaxshi niyat bilan Absalomga ergashishgandi. 12 Absalom Xevronda qurbonlik qilayotib, Dovudning maslahatchisi Oxitofelni ham chaqirtirib keldi. Oxitofel Giloxda* yashardi. Shu tariqa fitna kuchayib, Absalomni qo‘llayotganlar tobora ko‘payib borardi.

Dovud Quddusdan qochib ketadi

13 Bir xabarchi Dovudning oldiga kelib:

— Absalom Isroil xalqining ishonchini qozondi, — dedi. 14 Shundan so‘ng Dovud Quddusda o‘ziga xizmat qilib yurgan hamma odamlariga shunday buyruq berdi:

— Qani, qochib qolaylik! Bo‘lmasa, Absalom bizni sog‘ qo‘ymaydi. Hoziroq ketaylik, aks holda, Absalom orqamizdan birpasda yetib olib bizni bir baloga giriftor qiladi,

shahar aholisini birma–bir qilichdan o‘tkazadi!
15 — Shoh hazratlari nima qarorga kelgan bo‘lsalar, biz, qullaringiz, bajarishga
tayyormiz, — deyishdi shohning a’yonlari.
16 Shunday qilib, shoh butun saroy ahlini ergashtirib, yo‘lga tushdi. Saroyga qarab
tursin deb, faqat o‘nta kanizagini* u yerda qoldirdi. 17 Shoh va uning hamrohlari
shaharning eng chetidagi uyga yetib borishgach, o‘sha yerda to‘xtashdi. 18 Shohning
jamiki lashkari, Xaretlik va Palatlik hamma qo‘riqchilar*, Gat shahridan* unga ergashib
kelgan olti yuzta odam shohning oldidan o‘tdi. 19 Shoh Gatlik lashkarboshi Etxayga:
— Nimaga sen biz bilan kelyapsan? — dedi. — Orqangga qayt, kim shoh bo‘lsa, o‘sha
shoh bilan qol, chunki sen vatanidan quvilgan bir begonasan. 20 Sen kechagina kelding.
Men esa bugun qayerga borishimni o‘zim bilmayman–u, seni birga olib ketib sarson
qilaymi? Qani, birodarlaring bilan orqaga qayt. Egam marhamatini va sadoqatini sendan
darig‘ tutmasin!
21 Etxay shohga shunday javob berdi:
— Shoh hazratlari! Xudo shohid, ont ichib aytamanki, sizni tashlab ketmayman. Xoh
hayot uchun bo‘lsin, xoh o‘lim uchun bo‘lsin, siz qayerda bo‘lsangiz, men — qulingiz
ham o‘sha yerda bo‘laman.
22 — Bo‘pti, men bilan yuraver, — dedi Dovud Etxayga. Shundan keyin Gatlik Etxay,
uning yonidagi hamma odamlari, bola–chaqalari bilan, Dovudning yonidan o‘tib yo‘lda
davom etdilar.
23 Xalq yo‘lda davom etarkan, atrofda el–yurt zor–zor yig‘lab faryod chekardi. Shoh
Qidron soyligini* bosib o‘tdi. Xalq sahroga boradigan yo‘l bo‘ylab ketardi.
24 Ruhoniy Zodo‘x bilan Xudoning Ahd sandig‘ini ko‘tarib borayotgan levilar, ruhoniy
Abuatar ham shu yerda jam bo‘lgan edilar. Ular Xudoning Sandig‘ini yerga qo‘yib, xalq
shahardan chiqib bo‘lguncha kutib turishdi. 25 Bir payt Zodo‘xga shoh dedi:
— Xudoning Sandig‘ini shaharga qaytarib olib bor. Agar Egam mendan rozi bo‘lsa,
meni qaytarsin, Sandiq turadigan joyni va Sandiqni menga yana ko‘rsatsin. 26 Ammo
Egam: “Sendan rozi emasman”, desa, mayli, Unga nima ma’qul bo‘lsa, shuni qilsin.
27 Shoh ruhoniy Zodo‘x bilan gapini davom ettirdi:
— Axir, sen valiysan–ku!* O‘g‘ling Oximasni va Abuatarning o‘g‘li Yo‘natanni
yoningga ol. Abuatar bilan birga shaharga eson–omon qaytib boringlar. 28 Sizlardan aniq
xabar kelmaguncha, men Iordan daryosining kechuvida yashirinib o‘tiraman. Men
sahroga ketishdan oldin Quddusda nima bo‘layotganini bilayin.
29 Xullas, Zodo‘x bilan Abuatar Xudoning Sandig‘ini Quddusga qaytarib olib ketishdi
va o‘zlari ham o‘sha yerda qolishdi. 30 Dovud esa yig‘lay–yig‘lay Zaytun tog‘iga* ko‘tarila
boshladi. U qayg‘u–alamlardan boshini o‘rab olgan, yalangoyoq, yonidagi hamma
odamlar ham boshlarini o‘ragan, yig‘laganlaricha toqqa chiqishardi.
31 Shu payt kimdir Dovudga:
— Maslahatchi Oxitofel ham Absalom bilan birga fitna uyushtirganlarning orasida
ekan, — deb qoldi.
— Ey Egam! Iltijo qilaman: Oxitofel Absalomga ahmoqona maslahat bersin! — dedi
Dovud.
32 Dovud Zaytun tog‘ining tepasiga, Xudoga sajda qilinadigan joyga chiqib borganda,
u yerda Dovudni Orux urug‘idan* bo‘lgan Xushay kutib oldi. Xushay ayanchli ahvolda
bo‘lib, qayg‘udan kiyimlarini yirtgan, boshiga tuproq sochgan edi*. 33 Dovud unga:

— Agar men bilan borsang, menga yuk boʻlasan, — dedi. 34 — Sen shaharga qaytib
bor, Absalomga: “Ey shohim, men sizning qulingizman, otangizga oldin qanday itoat
etgan boʻlsam, sizga ham shunday itoat etaman”, deysan. Men uchun Oxitofelning
maslahatini yoʻqqa chiqarasan. 35 Ruhoniylar Zodoʻx bilan Abuatar oʻsha yerda sening
yoningda boʻlishadi. Shoh saroyida nima eshitsang, ularni xabardor qilib tur.
36 Zodoʻxning oʻgʻli Oximas bilan Abuatarning oʻgʻli Yoʻnatan ham oʻsha yerda. Nimaiki
eshitsangizlar, ruhoniylarning oʻgʻillari orqali meni xabardor qilib turasizlar.
37 Shunday qilib, Dovudning doʻsti Xushay Quddusga keldi. Xuddi shu paytda
Absalom ham Quddusga kirayotgan edi.

16–BOB

Dovud bilan Zibax

1 Dovud Zaytun togʻining narigi tomoniga oshib oʻtayotganda, Mefibositning
xizmatkori Zibaxga duch kelib qoldi. Zibax egarlangan ikkita eshak ustiga ikki yuzta non,
yuz hovuch mayiz*, yuz hovuch hoʻl meva va bir mesh sharob yuklab olgan edi.
2 — Bularni nimaga olib kelding? — deb soʻradi shoh Zibaxdan.
— Eshaklarni shohning xonadoni ahli minadi, non bilan hoʻl mevalarni yigitlar yeydi,
sharobni esa sahroda toliqib sulayib qolganlar ichadi, — deb javob berdi Zibax.
3 — Xoʻjayining Shoulning nabirasi qayerda? — soʻradi Dovud.
— Mefibosit Quddusda qoldi, — dedi Zibax. — Isroil xalqi bugun bobomning
shohligini menga qaytarib beradi, deb oʻylayapti u.
4 — Mefibositning hamma narsasi endi seniki, — dedi shoh.
— Qulingiz boʻlay, shoh hazratlari! Tilagim shuki, har doim iltifotingizga sazovor
boʻlay, — dedi Zibax.

Dovud bilan Shimax

5 Shoh Dovud Boxurimga yetib borganda, Shoul xonadonidan Shimax degan bir
odam qargʻanib oʻrtaga chiqdi. U Gera deganning oʻgʻli edi. 6 Shohni oʻng va chap
tomonida hamma odamlari, qoʻriqchilari himoya qilib turishardi. Shunga qaramay,
Shimax Dovudga va uning a’yonlariga tosh otardi. 7 Shimax shunday deb haqorat qilar
edi:
— Yoʻqol, ket, ey razil odam, sening qoʻling qon! 8 Sen Shoulning oʻrniga shoh boʻlgan
eding. Shoul xonadonidan qancha qonlar toʻkkan boʻlsang, Egam hammasini oʻz
boshingga qaytardi, shohlikni oʻgʻling Absalomga berdi. Qoʻling qon boʻlgani uchun
qilmishingga yarasha kulfat tortyapsan.
9 — Bu oʻlik koʻppak nega shoh hazratlarini haqorat qilar ekan? — dedi Zeruya oʻgʻli
Abushay Dovudga. — Ijozat bersinlar, borib boshini uzib tashlay.
10 Lekin shoh:
— Bu sizlarga aloqador ish emas, ey Zeruya oʻgʻillari! — dedi. — Egam unga
“Dovudni qargʻa!” degani uchun meni qargʻayotgan boʻlsa, kim undan: “Nega bunday
qilyapsan?” deb soʻray oladi?!
11 Keyin Dovud Abushay bilan barcha sipohlarga aytdi:
— Oʻzimning pushti kamarimdan paydo boʻlgan oʻgʻlim meni oʻldirmoqchi boʻlyapti–
yu, Benyamin naslidan boʻlgan shu odamning qiligʻiga hayron boʻlyapsizlarmi?!
Qoʻyinglar uni, mayli, haqorat qilaversin, chunki unga shunday qil, deb Egam buyurgan.

12 Balki Egam kulfatlarimni koʻrib, bugungi haqoratlar evaziga yaxshilik qaytarar.
13 Dovud odamlari bilan yoʻlida davom etaverdi. Dovudning yon tomonida — qir yon
bagʻrida yurib ketayotgan Shimax uni qargʻar, tosh otardi. 14 Shoh va hamrohlari
boradigan joylariga yetib kelgunlaricha charchashdi va dam olish uchun toʻxtashdi.

Oxitofel va Xushayning maslahatlari

15 Oʻsha paytda Absalom bilan unga ergashgan Isroil xalqi Quddusga kirdilar.
Maslahatchi Oxitofel ham Absalom bilan birga edi. 16 Dovudning doʻsti, Orux urugʻidan
boʻlgan Xushay Absalomning yoniga borib:
— Shohimizning umri uzoq boʻlsin! Shohimizning umri uzoq boʻlsin! — deb
hayqirdi. 17 Absalom Xushayga:
— Doʻstingga sadoqating shumi? Nimaga doʻsting bilan ketmading? — deb soʻradi.
18 — Nega ketar ekanman?! — dedi Xushay. — Men Egam va mana bu xalq,
qolaversa, butun Isroil xalqi tanlagan odamni yoqlayman, oʻsha odamning yonida
boʻlaman. 19 Ha, men Dovudning oʻgʻli Absalomdan boshqa yana kimga ham xizmat
qilardim?! Otangga qanday xizmat qilgan boʻlsam, senga ham shunday xizmat qilaman.
20 Shunda Absalom Oxitofelga qarab:
— Nima qilaylik, bizga maslahat ber–chi, — dedi. 21 Oxitofel shunday maslahat berdi:
— Otang, saroyga qarab turasizlar, deb kanizaklarini qoldirib ketgan edi. Oʻsha
kanizaklarning* oldiga kir. Shunda sen otangni ochiqchasiga sharmanda qilganingni
Isroil xalqi eshitadi. Seni qoʻllab–quvvatlagan odamlarning qarori yanada qatʼiy boʻladi.
22 Saroy tomida Absalom uchun bir chodir qurishdi. Absalom esa jamiki Isroil
xalqining koʻzi oldida otasining kanizaklari oldiga kirdi*.
23 Oʻsha paytlari Oxitofelning aytgan soʻzlari shunchalik dono ediki, xuddi toʻppa–
toʻgʻri Xudodan kelganday tuyulardi. Shuning uchun Absalom ham, Dovud qilganiday,
Oxitofelning hamma maslahatini soʻzsiz qabul qilardi.

17–BOB

1 Oxitofel Absalomga shunday dedi:
— Ijozat bersang, oʻn ikki ming kishini tanlab olaman, shu kechasiyoq otlanib,
Dovudning orqasidan tushaman. 2 Dovud charchagan, holdan toygan, unga hujum qilib
qoʻrqitsam, yonidagilarning hammasi qochib ketadi. Men faqat shoh Dovudni
oʻldiraman, xolos. 3 Keyin jamiki xalqni sening ixtiyoringga qaytarib olib kelaman. Oʻzing
qidirayotgan odamni topib oʻldirsang boʻldi — hamma senga bosh egadi, butun xalq
tinchiydi.
4 Bu maslahat Absalomga ham, jamiki Isroil oqsoqollariga ham maʼqul keldi.
5 — Orux urugʻidan boʻlgan Xushay bor–ku, uni ham chaqirib kelinglar, — dedi
Absalom, — u nimalar der ekan, eshitaylik–chi.
6 Xushay keldi.
— Oxitofel shunday–shunday maslahat berdi, — dedi Absalom. — Uning
maslahatiga amal qilsak boʻladimi? Boʻlmasa, sen maslahat ber.
7 — Oxitofelning bu safargi maslahati yaxshi emas, — dedi Xushay Absalomga. 8 —
Otang Dovud bilan uning odamlari mohir jangchilar ekanligini bilasan. Ular dashtda
bolalaridan ayrilgan ayiqday gʻazabga minganlar. Otang tajribali jangchi, tunni lashkar
yonida oʻtkazmaydi. 9 Shu paytda u birorta gʻorda yoki boshqa bir joyda yashirinib

yuribdi. U Absalomning odamlaridan ba’zilarini birinchi hujumdayoq halok qilganda, bu haqda eshitgan har bir odam: “Absalomga ergashganlar tor–mor bo‘ldi”, deydi. 10 U paytda hatto sher yurakli bahodir yigitlar ham qo‘rquvga tushadi. Chunki Isroildagi har bir odam otangning jasurligini, jangchilarining ham botirligini biladi. 11 Senga maslahatim shu: Dandan Bershebagacha cho‘zilgan joylardagi butun Isroil lashkari atrofingga to‘plansin. Axir, Isroil xalqi dengiz qirg‘og‘idagi qum singari son–sanoqsiz–ku! Ularni sen o‘zing jangga boshla. 12 Dovud qayerda yashirinib yurgan bo‘lsa ham, unga qarshi yurish qilamiz, butun yer yuzini shudring qoplaganiday, biz ham uning ustiga bostirib boramiz. Dovudni ham, yonidagilarning birortasini ham tirik qoldirmaymiz. 13 Agar u biror shahardan boshpana topsa, hamma Isroil odamlari arqon olib, o‘sha shaharga borishadi. Shunda hammamiz birgalikda shaharni ag‘darib, bir dona toshini ham qoldirmay, soylikka tortib tushiramiz.

14 Absalomga qo‘shilib hamma bir og‘izdan:

— Orux urug‘idan bo‘lgan Xushayning maslahati Oxitofelning maslahatidan ancha ma’nili, — deyishdi. Sababi, Egamiz Absalomni kulfatga duchor qilish niyatida Oxitofelning yaxshi maslahatini behudaga chiqarishni mo‘ljallab qo‘ygan edi.

Xushay Dovudga xabar beradi

15 Xushay ruhoniylar Zodo‘x bilan Abuatarga shunday dedi:

— Oxitofel Absalomga va Isroil oqsoqollariga unday maslahat berdi, men esa bunday maslahat berdim. 16 Sizlar hoziroq shu xabarni Dovudga yetkazinglar: bu kecha qirda — daryoning kechuvida tunamasin, hoziroq narigi qirg‘oqqa o‘taversin*. Bo‘lmasa, shohning o‘zi ham, yonidagi odamlari ham qirilib ketadi.

17 Bu paytda Abuatar o‘g‘li Yo‘natan bilan Zodo‘x o‘g‘li Oximas* En–Ro‘g‘ol bulog‘ida* kutib turishardi. Bir cho‘ri qiz bo‘lib o‘tgan gap–so‘zlarni ularga yetkazar, Yo‘natan bilan Oximas esa eshitganlarini shoh Dovudga yetkazib turishardi. O‘zlari tavakkal qilib shaharga kirolmas, birortasi ko‘rib qolishi mumkin edi. 18 Lekin bir o‘spirin nogahon ularni ko‘rib qoldi va Absalomga xabar berdi. Shundan keyin Yo‘natan bilan Oximas tezda bu shahardan chiqib, Boxurim shahridagi* bir odamning uyiga kelishdi. O‘sha uyning hovlisida bir quduq bor edi. Yo‘natan bilan Oximas quduqqa tushishdi. 19 Haligi odamning xotini quduq og‘zini yopinchiq bilan berkitdi. Quyoshda quritayotganday bo‘lib, ustiga boshoq yoyib qo‘ydi. Shuning uchun hech kim, bu yerda odam bor, deb shubhalanmasdi. 20 Absalomning odamlari o‘sha uyga borib, ayoldan:

— Oximas bilan Yo‘natanni ko‘rmadingmi? — deb so‘rashdi.

— Irmoqning narigi tomoniga o‘tib ketishdi, — deb javob berdi ayol. Absalomning odamlari ularni qidirib ketishdi, lekin topa olmay Quddusga qaytishdi. 21 Ular ketgandan so‘ng Oximas bilan Yo‘natan quduqdan chiqishdi–da, bo‘lib o‘tgan hodisalardan shoh Dovudni xabardor qilish uchun uning yoniga jo‘nashdi.

— Qani, hoziroq daryoni kechib o‘tinglar, chunki Oxitofel sizlarga qarshi shunday–shunday maslahat berdi, — deyishdi ular shohga. 22 Shu zahoti Dovud hamma odamlarini ergashtirib, Iordan daryosini zudlik bilan kechib o‘tdi. Tong otganda, hamma Iordan daryosidan o‘tib bo‘lgan, orqada birorta ham odam qolmagan edi.

23 Oxitofel bergan maslahati amalga oshmaganini ko‘rib, eshagini egarlab jo‘nadi. O‘z shahriga* — uyiga qaytib keldi. Ishlarini saranjom–sarishta qilib bo‘lgandan keyin, o‘zini osib o‘ldirdi. Uning jasadini ota–bobolarining xilxonasiga dafn qilishdi.

24 Absalom bilan Isroil lashkarining hammasi Iordan daryosini kechib
o‘tishayotganda, Dovud Moxanayim shahriga yetib borgan edi. 25 Absalom Yo‘abning
o‘rniga Emosani lashkarboshi qilib tayinlagandi. Emosa Yo‘abning jiyani bo‘lib, Ismoil
qavmidan* Eter* degan odamning o‘g‘li edi. Onasining ismi Obigayl bo‘lib, Naxosh degan
odamning qizi edi. Obigayl Zeruyaning singlisi, Zeruya Yo‘abning onasi edi. 26 Absalom
va uning qo‘li ostidagi Isroil lashkari Gilad yerlarida qarorgoh qurishdi.
27-29 Dovud Moxanayimga borganda, uni bir necha odam kutib turardi. Ular
Ommonlarning Rabba shahridan Naxosh o‘g‘li Sho‘vi, Lo‘davor shahridan Omiyol o‘g‘li
Moxir va Ro‘g‘olim shahridan Giladlik Borzulay edilar. Ular, odamlar cho‘lda toliqqan,
och qolib, chanqagandir, deb Dovud bilan uning odamlariga ko‘rpa–to‘shaklar, kosalar,
sopol idish–tovoqlar, bug‘doy, arpa, kepakli un, qovurilgan don, loviya, yasmiq doni*,
asal, suzma, pishloq va qo‘ylar olib kelishgan edi.

18–BOB

Absalomning halokati

1 Dovud yonida yurgan odamlarini bir joyga to‘plab, ular ustidan mingboshilar,
yuzboshilar tayinladi. 2 So‘ng odamlarini uch qismga bo‘ldi, birinchi qismga Yo‘ab
boshchilik qilardi, ikkinchisiga Yo‘abning akasi Abushay (Zeruyaning o‘g‘li),
uchinchisiga Gatlik* Etxay boshchilik qilishardi. Shoh odamlarini jangga jo‘natayotib
ularga:
— Men ham sizlar bilan birga boraman, — degan edi, 3 ular:
— Biz bilan bormang, — deyishdi. — Bordi–yu, qochishimizga to‘g‘ri kelib qolsa,
g‘animlarimiz biz bilan qiziqmaydi. Yarmimiz o‘lib ketganimizda ham e’tibor
berishmaydi. Siz bizning o‘n mingtamizga arziysiz. Siz bizga shahardan turib yordam
bering, bizga shunisi yaxshi.
4 — Sizlarga qaysinisi ma’qul bo‘lsa, shuni qilganim bo‘lsin, — dedi shoh. Odamlar
yuz, ming kishilik to‘dalarga bo‘linib shahardan chiqishayotganda, shoh darvoza yonida
turgan edi. 5 Shoh Yo‘abga, Abushay va Etxayga:
— Absalom yosh, mening hurmatim uchun unga ziyon yetkazmanglar, — deb
tayinladi. Shohning lashkarboshilarga Absalomga aloqador buyruq berganini hamma
sipohlar eshitishdi.
6 Absalomga ergashgan Isroil lashkari bilan jang qilish uchun Dovudning odamlari
maydonga chiqishdi. Jang Efrayim o‘rmonida bo‘ldi. 7 Dovudning odamlari Isroil
lashkarini mag‘lub qildi. Katta talafot bo‘ldi, o‘sha kuni yigirma ming kishi o‘ldi. 8 Jang
tobora yoyilib borardi. O‘sha kuni o‘rmondagi falokatdan nobud bo‘lgan odamlarning
soni jangda o‘ldirilganlarning sonidan ko‘p edi.
9 Jang payti Absalom xachirini minib yolg‘iz o‘zi qochib ketayotgan edi, to‘satdan
Dovudning odamlariga duch kelib qoldi. Xachir katta eman daraxtining qalin shoxlari
tagidan yelib ketayotganda, Absalomning boshi shoxlar orasiga kirib qoldi. Xachir yelib
ketaverdi, Absalom esa daraxtga osilib qoldi. 10 Dovudning odamlaridan biri
Absalomning osilib turganini ko‘rib qoldi va borib Yo‘abga aytdi:
— Absalomni ko‘rdim, u bir eman daraxtida osilib turibdi!
11 Yo‘ab xabar olib kelgan odamga:
— Uni ko‘rgan bo‘lsang, nimaga yerga qulatib o‘ldirmading? Senga o‘n kumush

tanga* va bir kamar hadya etgan bo‘lardim, — dedi. 12 O‘sha odam Yo‘abga shunday javob berdi:

— Hatto ming kumush tanga* sanab berganingizda ham, shoh o‘g‘liga qo‘limni tekkizmayman. Chunki shohning sizga, Abushay va Etxayga “Yosh Absalomning jonini saqlang” degan buyrug‘ini biz ham eshitgan edik. 13 Bordi–yu, Absalomning joniga qasd qilganimda, siz o‘zingizni chetga tortmasmidingiz, axir?! Baribir, shohimiz hamma narsadan voqif bo‘ladi–ku!

14 Yo‘ab:

— Sen bilan pachakilashib vaqtimni yo‘qotmay, — dedi–yu, qo‘liga uchta nayza olib o‘sha yerga bordi. Absalom eman daraxtida muallaq osilib turar, hali tirik edi. Yo‘ab Absalomning yuragiga nayza sanchdi. 15 So‘ngra Yo‘abning o‘nta qurolbardori Absalomni o‘rab olib, tamomila o‘ldirishdi.

16 Yo‘ab jangni to‘xtatish uchun burg‘u chaldirdi, shunda Dovudning odamlari Isroil lashkarini quvlashdan to‘xtab, orqaga qaytishdi. 17 Absalomni esa daraxtdan ko‘tarib olib, o‘rmondagi chuqur bir xandaqqa uloqtirishdi. Bir talay tosh uyib, xandaq og‘zini berkitishdi. Shu paytda Isroil lashkarining hammasi uy–uylariga qochib ketishgan edi.

18 Absalom hayotligida “Nomimni davom ettiradigan bitta ham o‘g‘lim yo‘q*”, deb Shoh soyligida* o‘ziga atab bir yodgorlik toshi o‘rnatgan va yodgorlik toshiga o‘zining nomini bergan edi. Bu yodgorlik shu kungacha* “Absalom yodgorligi” deyiladi.

Dovud o‘g‘liga aza tutadi

19 Zodo‘xning o‘g‘li Oximas Yo‘abga:

— Ijozat bersangiz, tez borib shohimizga: “Egam sizni g‘animlaringiz qo‘lidan qutqardi”, deb xabar yetkazsam, — dedi.

20 — Yo‘q, — dedi Yo‘ab, — bugun sen xabar olib bormaysan. Boshqa safar xabar yetkazarsan, lekin bugun emas. Chunki shohning o‘g‘li o‘ldi.

21 Keyin Yo‘ab Habashistonlik bir odamga*:

— Sen borib, ko‘rganlaringni shohga ayt, — deb buyurdi. O‘sha odam Yo‘abga ta’zim qildi–yu, yugurib ketdi. 22 Ammo Oximas yana:

— Nima bo‘lsa bo‘lar, ijozat bering, men anavi Habashistonlikning orqasidan yugurib borayin, — deb iltimos qildi.

— O‘g‘lim, nimaga yugurib borishni istab qolding? Senga manfaat keltiradigan xabar yo‘q–ku! — dedi Yo‘ab.

23 — Nima bo‘lsa bo‘lar, hozir yugurib boray, — deb yana iltimos qildi Oximas.

— Mayli, yugur, — dedi Yo‘ab. Oximas shu zahoti Iordan tekisligi bo‘ylab yugurib, Habashistonlikdan o‘zib ketdi.

24 Dovud bu vaqtda shahar darvozasi oldida* o‘tirgan edi. Qorovul shahar darvozasi tepasiga chiqdi. Atrofga nazar tashlab, bittasining yugurib kelayotganini ko‘rdi 25 va bu haqda shohga aytdi.

— Bittasi kelayotgan bo‘lsa, demak, yaxshi xabar olib kelyapti, — dedi shoh.

O‘sha odam tobora yaqinlashib kelardi. 26 Qorovul yana boshqasining yugurib kelayotganini ko‘rib, darvozabonga:

— Ana, yana bittasi yugurib kelyapti, — deb xabar berdi.

— U ham yaxshi xabar olib kelayotir, — dedi shoh.

27 — Menimcha, oldindagi odam yugurishidan Zodo‘x o‘g‘li Oximasga o‘xshaydi, —

dedi qorovul.

— Oximas — yaxshi odam, yaxshi xabar olib keladi, — deya javob berdi shoh.

28 Shu payt Oximas baland ovoz bilan shohga:

— Tinchlik–omonlik bo‘lsin, shohim! — dedi.

So‘ng shohning oldida muk tushib ta’zim qilib:

— Shoh hazratlariga qo‘l ko‘targanlar ustidan g‘alaba ato qilgan Egangiz Xudoga hamdu sanolar bo‘lsin! — dedi.

29 — Bolam Absalom sog‘–salomatmi? — deb so‘radi shoh.

— Yo‘ab men, qulingizni jo‘natgan paytda katta g‘alayon bo‘layotgan edi, keyin nima bo‘lganini bilmayman, — dedi Oximas.

30 — Bu tomonga o‘t, shu yerda kutib tur, — dedi shoh. Oximas nariga o‘tib kuta boshladi. 31 Shu orada Habashistonlik yetib keldi.

— Shoh hazratlariga xushxabar! — dedi u. — Egam adolat qilib, sizga qarshi isyon ko‘targanlar ustidan g‘alaba ato qildi.

32 — Bolam Absalom sog‘–salomatmi? — deb so‘radi shoh Habashistonlikdan.

— Shoh hazratlari! — dedi Habashistonlik. — G‘animlaringizning, yomon niyat bilan sizga qarshi otlanganlarning oxirati shu yigitning oxirati kabi bo‘lsin.

33 Shoh esankirab qoldi. Darvoza tepasidagi boloxonaga chiqib, faryod qila boshladi. U boloxonaga chiqar ekan:

— Oh, o‘g‘lim Absalom! Oh, o‘g‘ilginam, bolam Absalom! Sening o‘rningga men o‘lsam bo‘lmasmidi, o‘g‘lim?! Voy, bolam Absalom! — deb faryod qilardi.

19–BOB

Yo‘ab Dovudga tanbeh beradi

1 Shoh Dovud Absalom uchun ko‘z yoshi to‘kib, aza tutayotir, deb Yo‘abga xabar berishdi. 2 Dovudning sipohlari ham: “Shoh o‘g‘li uchun aza tutyapti ekan”, deb eshitishdi. Shunday qilib, o‘sha kungi g‘alaba barcha lashkar uchun azaga aylandi. 3 O‘sha kuni sipohlar xuddi urushdan qochganlarday, shaharga xijolat tortib, pisib kirishdi. 4 Shoh esa yuzini berkitib, bor ovozi bilan: “Oh, o‘g‘lim Absalom! Absalom, bolaginam, jigarim!” deb faryod qilardi.

5 Yo‘ab shoh turgan uyga kirib, unga shunday dedi:

— Bugun sizning joningizni, o‘g‘illaringiz, qizlaringiz, xotinlaringiz, kanizaklaringizning* jonlarini qutqargan odamlaringizning hammasini xijolatga qo‘ydingiz. 6 Chunki siz o‘zingizdan nafratlanganlarga mehr qo‘yib, sizni yaxshi ko‘rganlardan nafratlanar ekansiz. Bugun lashkarboshilaringiz va mard yigitlaringiz sizning oldingizda hech narsaga arzimasligini oshkor qilib qo‘ydingiz. Ha, men bir narsani anglab yetdim: bugun Absalom omon qolib, hammamiz o‘lib ketsak, sizga yaxshi bo‘lar ekan! 7 Endi turing, tashqariga chiqib, odamlaringizga dalda bering! Egamning nomini o‘rtaga qo‘yib ont ichamanki, agar chiqmasangiz, shu kecha sizning yoningizda birorta odam qolmaydi. Bu esa yoshligingizdan to shu bugungacha boshingizga kelgan kulfatlar ichida eng yomoni bo‘ladi!

8 Shu gapdan keyin shoh shahar darvozasi oldiga borib o‘tirdi. Jamiki lashkarga: “Shoh shahar darvozasida o‘tiribdi” degan xabar yetib bordi. Shundan keyin ular shohning yoniga tashrif buyurishdi.

Dovud Quddusga qaytadi

Bu paytda Isroil xalqidan Absalom tomonda bo‘lganlari uy–uylariga qochib ketgan
edi. [9] Isroilning turli qabilalaridan bo‘lgan odamlar bir–birlari bilan bahs qilishardi:
— Bizni g‘animlarimiz qo‘lidan Dovud xalos qilgan, Filistlar qo‘lidan qutqargan edi.
U Absalomdan qochib, yurtdan ketib qolgan. [10] Bizga yo‘lboshchi bo‘lsin deb, Absalomga
moy surtib shoh qilgan edik, lekin u jangda o‘ldi. Shunday ekan, Dovuddan iltimos
qilaylik, qaytib kelsin, bizning shohimiz bo‘lsin.
[11] Shoh Dovud ruhoniylar Zodo‘x bilan Abuatarga quyidagicha xabar jo‘natdi:
— Yahudo oqsoqollariga borib aytinglar, shoh shunday demoqda: “Butun Isroil xalqi,
shohni o‘z xonadoniga qaytarish kerak, deyapti. Isroil xalqining gaplari mening
qulog‘imga yetib keldi. Nima uchun sizlar loqaydlik qilyapsizlar? [12] Sizlar
qarindoshlarimsiz, jigarlarimsiz! Nega sizlar shohni qaytarib olib kelishni orqaga
suryapsizlar?” [13] Emosaga ham shu gapni yetkazinglar: “Sen jigarimsan–ku! Seni
hozirdan boshlab Yo‘abning o‘rniga umrbod lashkarboshi qilib tayinlayman. Shunday
qilmasam, Xudo meni ne ko‘yga solsa solsin, hatto undan battarrog‘ini qilsin!”
[14] Shunday qilib, Dovud jamiki Yahudo xalqini tamoman o‘ziga moyil qildi. Nihoyat,
ular shohga: “Hamma odamlaringizni ergashtirib orqaga qayting!” deb xabar berishdi.
[15] Shoh orqaga qaytib, Iordan daryosi bo‘yiga yetib keldi. Yahudo xalqi: “Shohni kutib
olaylik, Iordan daryosidan olib o‘taylik”, deb Gilgalga* keldi. [16] Benyamin qabilasidan
Gera o‘g‘li Shimax ham shu yerda edi. U shoh Dovudni kutib olish uchun shoshilganicha
Boxurim shahridan Yahudo odamlari bilan birga daryo bo‘yiga yetib keldi. [17] Uning
yonida Benyamin qabilasidan ming kishi bor edi. Shoul xonadonining xizmatkori Zibax
ham o‘n besh o‘g‘lini va yigirmata qulini ergashtirib keldi. Ular daryo bo‘yiga tezda
shohdan oldin yetib kelishdi. [18] “Shoh xonadonini daryodan olib o‘taylik, shohning
hamma xohishini bajo keltiraylik”, deb ular xizmat qilishdi.

Dovud Shimaxni kechiradi

Shoh Iordan daryosini endi kechib o‘tmoqchi bo‘lib turgan edi, Shimax o‘zini
shohning oyoqlari ostiga tashladi–da, [19] unga yolvordi:
— Shoh hazratlari gunohimdan o‘tsinlar! Quddusdan chiqqan kuningizda men qilgan
gunohni* eslamasinlar, xayollariga keltirmasinlar, shoh hazratlari! [20] Chunki men,
qulingiz, o‘z gunohimni bilaman. Mana, shoh hazratlarini kutib olish uchun bugun jamiki
Isroildagi odamlardan birinchi bo‘lib men keldim.
[21] Shunda Zeruya o‘g‘li Abushay:
— Nahotki Egam moy surtib tanlagan shohni haqorat qilgani uchun Shimax
o‘ldirilmasa?! — dedi.
[22] — Ey Zeruya o‘g‘illari! — dedi Dovud. — Kim sizlarning fikringizni so‘radi? Menga
aql o‘rgatmoqchimisizlar? Shu topda Isroil shohi ekanimni o‘zim bilmaymanmi? Isroilda
shu bugun birorta odamning qoni to‘kilmaydi!
[23] So‘ng Dovud Shimaxga:
— O‘lmaysan! — deb ont ichdi.

Dovudning Mefibositga mehribonligi

[24] Shoulning nabirasi Mefibosit ham shohni kutib olishga borgan edi. Shoh ketgan
kundan boshlab sog‘–salomat qaytgunigacha, Mefibosit na oyoqlarini, na kiyimlarini
yuvgan, na soqolini qirqqan edi. [25] Mefibosit shohni kutib olishga Quddusdan kelganda,

Dovud undan:

— Mefibosit, nimaga men bilan ketmading? — deb so‘radi. 26 Mefibosit shunday javob berdi:

— Ey shoh hazratlari, men, qulingiz, cho‘loq bo‘lganim uchun qulim Zibaxga: “Eshakni egarla, men eshakka minib shoh bilan birga ketaman”, degan edim. Lekin u meni aldadi, 27 shoh hazratlarining oldida men, qulingizning yuzini qora qildi. Ammo siz, shoh hazratlari, Xudoning farishtasidaysiz. Sizga nima ma’qul kelsa, shuni qiling. 28 Otam xonadonining hamma a’zolari shoh hazratlaridan faqat o‘limni kutib yurganlarida, men, qulingizga, siz xonadoningiz a’zolari qatorida dasturxoningizdan taom yeyish imtiyozini berdingiz. Sizdan bundan ortiq bir narsa so‘rashga qanday haqim bor, ey shohim?!

29 — O‘zingning ishlaring to‘g‘risida gapirishingga hojat yo‘q, — dedi shoh. — Senga va Zibaxga, yerlarni* bo‘lishib olaveringlar, deb buyurgan edim–ku.

30 — Shoh hazratlari nihoyat saroyga sog‘–salomat qaytib keldilar, shuning o‘zi menga kifoya, — dedi Mefibosit. — Endi hamma yerni Zibax olaversin.

Dovudning Borzulayga mehribonligi

31 Giladlik Borzulay ham shohga Iordan daryosini kechib o‘tishida yordam berib, uni kuzatib qo‘yay deb, Ro‘g‘olimdan kelgan edi. 32 Borzulay ancha keksayib qolgan, sakson yoshda edi. U boy odam bo‘lib, shoh Moxanayimda istiqomat qilib turgan paytda, shohning tirikchiligini ta’minlagan edi. 33 Shoh Borzulayga:

— Men bilan yuring, endi Quddusda men sizning tirikchiligingizni ta’minlayman, — dedi. 34 Lekin Borzulay:

— Qancha umrim qoldiki, siz bilan Quddusga ketsam? — dedi. 35 — Men, qulingiz, hozir sakson yoshdaman. Bundan bu yog‘iga nima yoqadi, nima yoqmaydi — ajrata bilmasam, yeb–ichganimning ta’mini seza olmasam. Yana erkak–ayol qo‘shiqchilarning ovozini farqlay olmasam. Shunday ekan, nimaga shoh hazratlariga yana yuk bo‘layin? 36 Men, qulingiz, Iordan daryosini shoh bilan birga kechib, sizga bir oz hamroh bo‘laman, xolos. Shoh nima uchun menga shu qadar iltifot qilishi kerak? 37 Ijozat bersangiz, men orqamga qaytayin, o‘z shahrimda jon berib, ota–onamning xilxonasiga dafn qilinayin. Lekin mana qulingiz Ximxon shu yerda, u siz bilan narigi qirg‘oqqa o‘tsin. Unga nimani ma’qul ko‘rsangiz, shuni qilarsiz.

38 — Ximxon men bilan narigi qirg‘oqqa kechib o‘tadi, — dedi shoh. — Siz unga nimani ma’qul ko‘rsangiz, u uchun shuni bajo keltiraman. O‘zingiz uchun nima istaysiz? Ayting, bajo qilayin.

39 Shundan so‘ng shoh bilan barcha odamlar Iordan daryosini kechib o‘tdilar*. Shoh Dovud Borzulayni o‘pib, duo qildi. Borzulay o‘z yurtiga qaytib ketdi.

Yahudo va Isroil xalqi shohni talashishadi

40 Shoh Gilgalga jo‘nadi. Ximxon ham u bilan birga ketdi. Yahudo odamlarining hammasi va Isroil* odamlarining yarmi shohni kuzatib borayotgan edilar. 41 Bir payt jamiki Isroil xalqi shohning oldiga borib shunday deyishdi:

— Nega birodarlarimiz Yahudo xalqi sizni olib qochib, o‘zingizni, xonadoningizni, odamlaringizni Iordan daryosining bu tomoniga ham o‘tkazib qo‘yishdi?

42 Yahudo xalqi Isroil xalqiga shunday javob qaytarishdi:

— Chunki shoh bizning yaqinimiz. Nimaga sizlar xafa bo‘lyapsizlar? Shohning yeydiganidan biror narsa yedikmi?! Yoki o‘zimizga biror narsa oldikmi?

43 — Isroilda o‘nta qabila bor, — deb javob berdi Isroil xalqi. — Shuning uchun Dovudda sizlardan ko‘ra, bizning o‘n marta haqimiz bor. Shunday ekan, nega bizni mensimaysizlar?! Shohimizni qaytarib kelaylik, deb birinchi bo‘lib biz aytmaganmidik?!

Yahudo xalqining gapi Isroil xalqinikidan ko‘ra, qattiqroq bo‘ldi.

20–BOB

Shebaning isyoni

1 O‘sha paytda Benyamin qabilasidan Sheba degan yaramas bir odam shu yerda — Gilgalda edi. U Bixri deganning o‘g‘li edi. Sheba burg‘u chalib, shunday xitob qildi:

“Essay o‘g‘li Dovudning bizga o‘tkazib qo‘ygan joyi yo‘q,
Bizning ham undan qarzimiz yo‘q!
Ey Isroil* erlari, hamma o‘z uyiga qaytsin!”

2 Shundan keyin jamiki Isroil odamlari Dovudni tark etib, Shebaga ergashib, ketib qolishdi. Yahudo xalqi esa o‘zlarining shohiga sodiq qolib, Iordan daryosidan Quddusgacha unga hamroh bo‘lishdi.

3 Shoh Dovud Quddusdagi saroyiga yetib borgach, saroyga qarab turinglar deb, qoldirib ketgan o‘nta kanizagini* alohida uyda saqlashni buyurdi. Dovud ularni boqdi, lekin birortasi bilan birga bo‘lmadi*. Kanizaklar esa umrlarining oxirigacha nazorat ostida, beva xotinlar kabi yashadilar.

4 Shundan keyin shoh Dovud o‘z lashkarboshisi Emosaga:

— Uch kun ichida Yahudo xalqini huzurimga chaqirib kel, o‘zing ham shu yerda bo‘l, — dedi. 5 Emosa Yahudo xalqini chaqirib kelishga ketdi. Ammo belgilangan vaqtda qaytib kelmadi. 6 Shundan so‘ng Dovud boshqa lashkarboshisi Abushayga dedi:

— Endi Sheba bizga Absalomdan ham og‘irroq kulfat keltiradi. Mening odamlarimni olib, Shebaning orqasidan quvla. Aks holda, u mustahkam shaharga o‘rnashib olib, bizdan yashirinadi.

7 O‘sha zahoti Abushay Shebani tutib kelish uchun Quddusdan chiqdi. U Yo‘abni va uning odamlarini, Xaretlik va Palatlik qo‘riqchilarni*, hamma botir sipohlarni yoniga oldi. 8 Ular Givondagi* katta qoyaning yoniga yetib borganda, Emosani uchratib qoldilar. Yo‘ab jang kiyimlarini kiyib olgan edi. Kiyimining ustidan kamar bog‘lagan, xanjarini qiniga solib, kamariga osib olgan edi. U Emosaning oldiga so‘rashish uchun qadam tashladi–yu, yashirincha xanjarini qinidan sug‘urdi.

Yo‘ab Emosaga:

9 — Yaxshimisan, inim? — dedi–yu, go‘yo uni o‘pmoqchi bo‘lib, o‘ng qo‘li bilan Emosaning soqolidan ushladi. 10 Emosa Yo‘abning narigi qo‘lida xanjar borligini sezmay qoldi. Yo‘ab xanjarini Emosaning qorniga tiqdi, Emosaning ichak–chovog‘i yerga to‘kildi. Ikkinchi marta xanjar urishiga hojat qolmadi, Emosaning joni chiqib bo‘lgan edi.

Shundan keyin Yo‘ab bilan akasi Abushay Shebani quvlashda davom etishdi. 11 Yo‘abning odamlaridan biri Emosaning jasadi tepasida turib:

— Yo‘abga kim sodiq bo‘lsa, kim Dovud tarafida bo‘lsa, Yo‘abning orqasidan borsin, — dedi. 12 Emosaning jasadi qonga belanib yo‘lning o‘rtasida yotar, har bir odam jasadga yaqinlashganda, uning tepasida to‘xtab qolardi. Yo‘abning gapirgan o‘sha odami bu

ahvolni ko‘rib, Emosaning jasadini sudrab, yo‘l yoqasidagi dalaga olib borib tashladi, ustiga kiyim tashlab qo‘ydi. 13 Jasad yo‘ldan olib tashlangandan so‘ng, hamma Shebani quvlab, Yo‘abning ortidan ketdi.

14 Shu orada Sheba Isroil qabilalarining hamma yerlarini bosib o‘tib, Ovil–Bayt–Maxo shahriga* yetib keldi. Bixri* urug‘ining hammasi Shebaga ergashib, shaharga kirib olishdi. 15 So‘ng Yo‘ab va uning hamma odamlari Ovil–Bayt–Maxoga bordilar, o‘sha shaharni qamal qilib, shahar devoriga qiyalatib tuproq uydilar* va tepaga chiqib devorteshar qurol bilan devorni yiqita boshladilar. 16 Shu payt bir dono ayol shahar ichkarisidan ovoz berdi:

— Eshitinglar! Quloq solinglar! Yo‘abni aytib yuboringlar, bu yoqqa kelsin, u bilan gaplashmoqchiman.

17 Yo‘ab ayolga yaqinroq bordi.

— Yo‘ab sizmisiz? — so‘radi ayol.

— Ha, menman, — dedi Yo‘ab.

— Bu cho‘ringizning so‘zlarini eshiting! — dedi ayol.

— Qulog‘im senda, — dedi Yo‘ab.

18 Ayol gapida davom etdi:

— Qadimdan “Ovil shahrida maslahat qilinglar” degan gap bo‘lardi, shunga rioya qilib, hamma har qanday ishlarini hal qilishardi. 19 Biz Isroilning tinchligini istagan sodiq kishilarmiz. Siz esa Isroilda onaday bo‘lgan shaharni vayron qilmoqchisiz. Nimaga Egamning merosini yo‘q qilish sizga kerak bo‘lib qoldi?

20 — Xudo saqlasin! — dedi Yo‘ab, — vayron qilmoqchi yoki butunlay yo‘q qilmoqchi emasman. 21 Hecham unday emas. Efrayim qirlaridan Bixri o‘g‘li Sheba degan odam shoh Dovudga qarshi isyon ko‘targan edi. Faqat o‘shani bersangizlar bo‘ldi, men shahardan tinchgina ketaman.

— Uning boshini devordan oshirib, sizga tashlashadi, — dedi ayol.

22 So‘ng ayol butun shahar ahliga o‘zining dono gaplarini yetkazdi. Shahar ahli Shebaning boshini kesib, devordan oshirib Yo‘abga tashladi. Yo‘ab burg‘usini chaldi. Yo‘abning odamlari shahardan chiqib, uylariga qaytib ketishdi. Yo‘ab ham Quddusga — shohning yoniga jo‘nadi.

Dovudning a’yonlari

23 Yo‘ab butun Isroil qo‘shinining lashkarboshisi edi. Yohayido o‘g‘li Binayo esa Xaretlik va Palatlik qo‘riqchilarning sardori edi. 24 Odoniram* qarollar ustidan mas’ul, Oxilud o‘g‘li Yohushafat mushovir* edi. 25 Shavo — kotib, Zodo‘x bilan Abuatar — ruhoniy, 26 Yovirlik Ero ham Dovudning ruhoniysi edilar.

21–BOB

Givonliklar Shoul xonadonidan o‘ch oladi

1 Dovud shohligi paytida uch yil muttasil ocharchilik hukm surdi. Dovud Egamizdan shu haqda so‘ragan edi*, Egamiz shunday javob berdi: “Qon to‘kkan Shoul va uning xonadoni bu ocharchilikka sababchi, chunki Shoul Givonliklarni qirgan edi.”

2 Shundan so‘ng shoh Givonliklarni chaqirtirib keldi va ular bilan gaplashdi.

Givonliklar Isroil qavmlaridan bo‘lmay, Amor xalqlarining* qolgan–qutgani edi. Isroil xalqi Givonliklarga, sizlarni tirik qoldiramiz, deb ont ichishgan edi*. Shunga

qaramay, Shoul ularni qirib tashlashga harakat qilgan, chunki u butun yurtni Isroil va Yahudo xalqi nazorat qilishini istagandi.

3 Xullas, Dovud:

— Sizlar uchun nima qilay? — deb so‘radi Givonliklardan. — Egamning xalqini duo qilishingiz uchun bu gunohni qanday yuvsam bo‘ladi?

4 Givonliklar unga:

— Bizga Shoul va uning xonadonidan oltin ham, kumush ham kerak emas, Isroil xalqidan birortasini o‘ldirish niyatimiz ham yo‘q, — deb javob berishdi.

— Nima istasangiz, bajo qilaman, — dedi Dovud. 5 Shundan so‘ng Givonliklar aytishdi:

— Shoul bizni Isroil yurtida yashamasin deb, qirib tashlashni va bizni yo‘qotishni maqsad qilib qo‘ygan edi. 6 Shuning uchun Shoulning o‘g‘illaridan yettitasi bizga berilsin. Biz ularni Givonda, aynan Egamiz tanlab olgan Shoulning shahrida, Egamizning huzurida o‘ldiramiz. Jasadlarini tik o‘rnatilgan xodaning uchiga qoqamiz.

— Sizlarga beraman ularni, — dedi shoh.

7 Dovud Shoulning nabirasi — Yo‘natanning o‘g‘li Mefibositga rahm qilib, uni Givonliklarga bermadi. Dovud bilan Yo‘natan Egamizning nomini o‘rtaga qo‘yib bir–biriga qasamyod qilishgan edi. 8 Shoulga Oyo qizi Rizpa Ormanax va Mofibaset degan ikki o‘g‘il tug‘ib bergan edi. Dovud Shoulning o‘sha ikkala o‘g‘lini oldi. Shoulning qizi Merav* Maxlalik Borzulay o‘g‘li Odriyoldan beshta o‘g‘il ko‘rgan edi. 9 Dovud o‘sha o‘g‘illarning hammasini Givonliklarning qo‘liga berdi. Givonliklar yettovini tog‘da — Egamizning oldida o‘ldirib, jasadlarini tik o‘rnatilgan xodaning uchiga qoqishdi. Yettovi ham birga jon bergan edi. Ular o‘ldirilganda, o‘rim–yig‘im endi boshlangan, arpa o‘rimining ilk kunlari* edi.

10 Oyo qizi Rizpa qanor* oldi va jasadlar yonidagi bir qirning tepasiga borib, qanorni yoydi. O‘rim payti boshlangandan to jasadlar ustiga osmondan yomg‘ir yoqqunga qadar*, Rizpa o‘sha yerda qoldi. Jasadlarni kunduzi osmonda uchadigan qushlardan, kechalari yovvoyi hayvonlardan qo‘riqladi.

11 Shoulning kanizagi* Oyo qizi Rizpa qilgan ishni Dovudga yetkazishdi. 12 Dovud Giladdagi Yobosh xalqining oldiga borib, Shoul va uning o‘g‘li Yo‘natanning suyaklarini ulardan oldi. Filistlar Gilbova tog‘ida Shoulni o‘ldirgan kuni uning va o‘g‘lining jasadlarini Bayt–Shan shahri maydonida devorga qoqib qo‘ygan edilar. Giladdagi Yobosh xalqi esa ikkovining jasadini yashirincha u yerdan olib ketishgan edi*. 13 Dovud Shoul bilan o‘g‘li Yo‘natanning suyaklarini u yerdan olib kelgandan so‘ng, o‘ldirilgan yetti kishining jasadlarini ham olishdi. 14 Shoul bilan o‘g‘li Yo‘natanning suyaklarini Benyamin hududidagi Zilaga — otasi Kishning xilxonasiga dafn qilishdi. Shunday qilib, shohning hamma farmonlarini ijro etishdi.

Shundan keyin Xudo yurt uchun qilingan iltijolarga javob berdi.

Filistlarga qarshi urush

15 Filistlar bilan Isroil lashkari o‘rtasida yana urush boshlandi. Dovud odamlari bilan Filistlarga qarshi urushga otlandi. Ammo janglar davomida Dovud juda toliqib qoldi. 16 Filist jangchilaridan biri Yishbibanuv Dovudni o‘ldirmoqchi bo‘ldi. Yishbibanuv Rafa xalqidan* edi. U qo‘lida uchi 750 misqol* keladigan bronza nayza ko‘targan, beliga esa yangi qilich bog‘lab olgandi. 17 Zeruya o‘g‘li Abushay* Dovudni himoya qilib, o‘sha

Filistni mag‘lub qilib o‘ldirdi. Shundan keyin Dovudning odamlari unga: “Endi siz biz bilan urushga bormaysiz, toki Isroilning chirog‘i o‘chib qolmasin”, deb aytishdi.
18 Shundan so‘ng Gov shahrida Filistlar bilan yangidan urush boshlandi. Xushalik Sibaxay bu urushda Sof degan odamni o‘ldirdi. Sof Rafa xalqidan edi.
19 Ko‘p o‘tmay Isroil lashkari bilan Filistlar o‘rtasida Govda yana urush bo‘ldi. Yovir* o‘g‘li Elxanon Gatlik* Go‘liyotning ukasini* o‘ldirdi. Elxanon Baytlahmlik edi. Go‘liyot nayzasining sopi to‘quvchining dastgohi xodasiday kelardi.
20 So‘ngra yana Gat shahrida urush bo‘ldi. U yerda ham Rafa xalqidan devday bir odam bor edi. Uning qo‘l–oyoqlari olti barmoqli edi, hammasi bo‘lib yigirma to‘rtta barmog‘i bor edi. 21 O‘sha odam Isroil lashkarini haqorat qilgan edi, Yo‘natan uni o‘ldirdi. Yo‘natan Dovudning akasi Shimoning o‘g‘li edi.
22 Dovud va uning odamlari tomonidan o‘ldirilgan o‘sha to‘rtalasi ham Gatlik bo‘lib, Rafa xalqidan edi.

22–BOB

Dovudning zafar qo‘shig‘i

1 Egamiz Dovudni jamiki dushmanlari va Shoulning qo‘lidan ozod qilgan kuni Dovud Egamizga atab shu qo‘shiqni aytdi:

2 “Egam suyangan qoyamdir*, mening qal’am, qutqaruvchimdir.
3 Ha, Xudodir mening qoyam, Unda panoh topaman.
Udir mening qalqonim, qudratli najotkorim*,
Qo‘rg‘onimu boshpanam.
Xaloskorim, zulmdan meni Sen qutqarasan!
4 Egamga iltijo qilaman,
G‘animlarimdan U meni xalos qiladi.
Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin!

5 O‘lim to‘lqinlari meni qurshab olgandi,
Balo–qazo sellari dahshat ila bosgandi,
6 Ha, o‘liklar diyorining* to‘rlari meni o‘rab olgandi,
O‘lim o‘z tuzog‘iga meni asir qilgandi.

7 Kulfatda qolganimda Egamga iltijo qildim,
Ha, Xudoyimga iltijo qildim.
Ma’badidan turib U ovozimni eshitdi,
Ohu nolam qulog‘iga yetib bordi.

8 O‘sha zamon yer yuzi titrab, tebrandi,
Osmon poydevori* larzaga keldi,
Egam g‘oyat g‘azabga mingan edi.
9 Burnidan tutun buruqsab chiqardi,
Og‘zidan otash pishqirardi,
Oldidan qip–qizil cho‘g‘ yog‘ilardi.
10 U ko‘klarni yorib, pastga tushdi,

Oyoqlari ostida — qora bulut.
11 Egam bir karubga* minib uchib keldi,
Yel qanotlari uzra ko‘ringan edi.
12 Atrofini zulmat bilan o‘radi,
Atrofidagi qora bulutlarni O‘ziga chayla qildi.
13 Ulkan nur Egamning oldidan chiqdi,
Qip–qizil cho‘g‘ yog‘ilib turdi.
14 Egamning ovozi ko‘klardan guldiradi,
Xudoyi Taoloning sadosi eshitildi.
15 O‘qlar otdi, chaqmoq chaqtirib, yovlarini tirqiratdi,
Ularni sarosimaga soldi.
16 Egamning tahdidlaridan,
Uning qahrli nafasidan
Dengizning tubi ko‘rinib qoldi,
Zamin poydevori* yalang‘och bo‘lib qoldi.

17 Egam yuqoridan qo‘l uzatib, meni tutdi,
Bahaybat suvlardan* meni chiqarib oldi.
18 Meni kuchli g‘animlarim qo‘lidan,
Mendan nafratlangan yovlarimdan qutqardi,
Ular mendan kuchli edilar.
19 Qora kunimda ular menga hamla qildilar,
Ammo Egam menga tayanch bo‘ldi.
20 Meni bexavotir joyga chiqarib qo‘ydi,
Mendan mamnun bo‘lib, najot berdi.

21 Egam solihligim uchun meni mukofotlaydi,
Aybsizligim uchun meni taqdirlaydi.
22 Zero, men Egamning yo‘lidan yurdim,
Axloqsizlik qilmadim,
Xudoyimdan yuz o‘girmadim.
23 Uning hamma qonun–qoidalariga rioya qildim,
Farmonlaridan bo‘yin tovlamadim.
24 Uning oldida benuqson bo‘ldim,
Gunoh qilishdan o‘zimni saqladim.
25 Shu sababli Egam meni pok deb bildi,
Solihligimga yarasha mukofot berdi.

26 Ey Egam! Senga sodiq bo‘lganga Sen sodiq bo‘lasan,
Yaxshi insondan yaxshiligingni ayamaysan.
27 Pok kishiga pokligingni ko‘rsatasan,
Egrining ayyorligini o‘z boshiga solasan.
28 Ahli kamtarga esa najot berasan,
Dimog‘dorni kuzatib, yerga urasan.

29 Ey Egam! Sen O‘zing chirog‘imsan,

Zulmatni men uchun yorug‘likka aylantirasan.
30 Ey Xudoyim! Senga suyanib lashkarni yo‘q qilaman,
Senga suyanib devorlardan oshib o‘taman.

31 Xudoning yo‘li komildir,
Egamizning kalomi chin haqiqatdir,
Panoh izlab borganga U qalqondir.
32 Egamizdan boshqa Xudo kim ekan?!
Xudoyimizdan bo‘lak suyanchiq Qoya bormikan?!
33 Mening mustahkam qal’am Xudodir,
Yo‘limni O‘zi bexatar qiladi.
34 U oyoqlarimni kiyik oyog‘iday qiladi,
Cho‘qqilar uzra meni bexatar yurgizadi.
35 Qo‘llarimni jang qilishga o‘rgatadi,
Barmoqlarim bronza yoyni buka oladi.
36 Ey Egam, Sen menga zafar qalqoningni bergansan,
Madading esa meni yuksaltiradi.
37 Oyoqlarim uchun yo‘limni keng qilgansan,
Oyoqlarim sira og‘ib ketmaydi.

38 G‘animlarimni quvlab, halok qildim,
Ularni yo‘q qilmay ortga qaytmadim.
39 Ularni shunday ezdimki, hech ham tura olmadilar.
Oyoqlarim ostida cho‘zilib qoldilar.
40 Sen menga quvvat berib, jangga yubording,
Menga qarshi otlangan yovni oldimda bosh egdirding.
41 G‘animlarimni mendan qochirding,
Mendan nafratlanganlarni men yo‘q qildim.
42 Ular madad so‘rab faryod qildilar,
Najotkorni esa topolmadilar,
Ey Egam, g‘animlarim Senga yolvordilar,
Ammo Sen javob bermading.
43 Yerdagi tuproq singari ularni ezdim,
Yo‘ldagi loydek tepkilab bosdim.

44 Sen meni xalqim g‘iybatidan xalos qilding,
Meni ellarga yo‘lboshchi qilish uchun saqlading.
O‘zim tanimagan elat menga qaram bo‘ldi.
45 Yot ellar menga bo‘yin egdilar,
Ovozimni eshitiboq quloq tutdilar.
46 Yot ellar holsizlanib yiqildilar,
Qaltirab manzilidan chiqib qochdilar.

47 Egam barhayotdir! Suyangan Qoyamga olqishlar bo‘lsin!
Najotim qoyasi — Xudoyim yuksalsin!
48 Qasdimni olgan Xudodir,

Xalqlarni menga U tobe qilgan.
49 Meni g‘animlarimdan U qutqargan,
Bosqinchilardan meni ustun qilgan,
Meni zo‘ravonlar qo‘lidan xalos etgan.

50 Shu bois, ey Egam, xalqlar ichra
Senga hamdlar aytaman!
Seni kuylab sano aytaman!

51 Egamiz O‘z shohini ulug‘ zafarlarga erishtiradi,
O‘zi tanlagan shoh Dovud va uning nasliga
To abad sodiq sevgisini ko‘rsatadi.”

23–BOB

Dovudning vasiyati

1 Essay o‘g‘li Dovudning so‘zlari.

Dovudni Xudo yuksaltirgan,
Yoqubning Xudosi moy surtib, shoh qilgan uni,
Dovud Isroilning suyukli qo‘shiqchisi bo‘lgan.
Dovudning oxirgi so‘zlari quyidagilardir:

2 “Egamning Ruhi men orqali gapirdi,
Tilimdan Uning kalomi to‘kildi.
3 Isroil xalqining Xudosi men orqali so‘zladi,
Isroilning ishongan Qoyasi* menga shunday deb aytdi:
«Insonlarni adolat bilan boshqarayotgan,
Xudodan qo‘rqib shohlik qilayotgan inson
4 Bamisoli tong shafag‘idir,
Musaffo tongda nur sochayotgan quyosh kabidir,
Nurlari yomg‘irdan so‘ng tuproqda maysa undirar.»

5 Xonadonim Xudo oldida shunday emasmi?!
Chunki U men bilan abadiy bir ahd tuzgan,
Bu ahd har tomonlama ishonchli, mustahkamdir.
Albatta g‘olib bo‘lishim uchun, har qanday tilagimga yetishim uchun,
U shak–shubhasiz menga madad beradi.
6 Shakkoklar uloqtirilajak tikan kabidir,
Chunki ularni qo‘l bilan ushlab bo‘lmas.
7 Tikan yig‘moqchi bo‘lgan kishi
Temir asbob yoki nayzaning sopidan foydalanar.
Tikanlarga o‘t qo‘yib, kulini ko‘kka sovurar.”

Dovudning “Uch qahramon” va “O‘ttiz qahramon” degan guruhlaridagi bahodir jangchilar

8 Dovudga xizmat qilgan bahodir jangchilarning ismlari quyidagicha: birinchisi —

Xaxmo‘n urug‘idan Yoshuvam*. U “Uch qahramon”ning* sardori edi. U nayzasi bilan sakkiz yuz kishiga hujum qilib, hammasini bir jangda o‘ldirgan edi*.

9 “Uch qahramon”dan ikkinchisi Oxo‘va urug‘idan Do‘do‘ o‘g‘li Elazar edi. U jang
qilish uchun to‘plangan Filistlarni Dovud bilan birga mag‘lub qilgan edi. Isroil lashkari u
paytda chekingan edi. 10 Lekin Elazar joyida turaverdi, chekinmadi. Qo‘li toliqib, uvushib
qolguncha Filistlarni o‘ldirdi. O‘sha kuni Egamiz uni ulug‘ zafarga erishtirdi. So‘ngra
Isroil lashkari faqat halok bo‘lganlarni talon–taroj qilish uchun Elazarning orqasidan
bordi.

11 “Uch qahramon”dan uchinchisi Xarorlik Agey o‘g‘li Shammox edi. Filistlar Lexidagi
bir yasmiqzor* yoniga yig‘ilib kelganda, Isroil lashkari ularning oldiga tushib
qochishgan edi. 12 Lekin Shammox yasmiqzorning o‘rtasida turib olib, o‘sha yerni
himoya qildi va Filistlarni tor–mor qildi. Shu tariqa, Egamiz uni ham ulug‘ zafarga
erishtirdi.

13 O‘rim–yig‘im paytida o‘sha uchalasi (ular “O‘ttiz qahramon”* guruhi tarkibiga kirar
edilar)* Dovudning yoniga — Adullam g‘origa ketdilar*. Rafa vodiysida* Filistlar
lashkari qarorgoh qurgan edi. 14 Bu paytda Dovud o‘zining adirdagi qarorgohida edi.
Bitta Filist qo‘nolg‘asi esa Baytlahmda joylashgan edi. 15 Dovud hasrat bilan:

— Qaniydi birortasi Baytlahm darvozasining yonidagi quduqdan menga suv olib
kelib bersa! — dedi.

16 O‘sha uchta qahramon Filistlar qarorgohini yorib o‘tishdi–da, Baytlahmdagi
darvozaning yonidagi quduqdan suv tortib, Dovudga olib kelishdi. Lekin Dovud suvni
ichmay, yerga to‘kib, Egamizga bag‘ishladi.

17 — Ey Egam! — deb xitob qildi. — Bunday qilishdan meni O‘zing asra! Shu
yigitlarning qonini ichaymi? Axir, ular jonini xavf–xatarga qo‘yib, suv olib kelgani
borishdi–ku!

Shuning uchun ham Dovud suvni ichishni istamadi. “Uch qahramon” ana shunday
jasurlik ko‘rsatishgan edi.

18 Yo‘abning akasi Abushay “O‘ttiz* qahramon”ning sardori edi. Abushay nayzasi
bilan uch yuz kishini o‘ldirdi. Shu tariqa u “Uch qahramon” singari dong taratdi. 19 U
“O‘ttiz qahramon”dan ham mashhur edi, ularning yo‘lboshchisi bo‘ldi. Lekin “Uch
qahramon”dan biri hisoblanmasdi.

20 Yana Kabzil shahridan Yohayido o‘g‘li Binayo degan jasur bir jangchi bor edi. U
ajoyib ishlar qildi, Mo‘ablik ikki dovyurak odamni* o‘ldirdi. Qor yoqqan kunda bir
xandaqqa tushib, sherni o‘ldirdi. 21 Yana devday bir Misrlikni ham o‘ldirdi. Misrlikning
qo‘lida nayzasi bor edi. Binayo uning ustiga tayoq bilan bostirib bordi. Nayzani
Misrlikning qo‘lidan tortib oldi–da, o‘sha nayza bilan uni o‘ldirdi. 22 Binayoning qilgan
ishlari ana shulardir. Shu tariqa, Binayo “Uch qahramon” kabi dong taratdi. 23 U “O‘ttiz
qahramon” orasida shuhrat topdi, lekin “Uch qahramon”dan biri hisoblanmasdi. Dovud
uni qo‘riqchilar sardori qilib tayinladi.

24 Quyidagilar ham “O‘ttiz qahramon”dan edilar:

Yo‘abning ukasi Osoyil,
Baytlahm shahridan Do‘do‘ o‘g‘li Elxanon,
25 Xaro‘d shahridan Shammox va Elixo,
26 Palat shahridan Xalez,

Taxuva shahridan Ixesh o‘g‘li Ero,
27 Onoto‘t shahridan Abuazar,
Xusha shahridan Sibaxay*,
28 Oxo‘va urug‘idan Zalmon,
Natufo shahridan Maxray,
29 Natufo shahridan Banax o‘g‘li Xaled*,
Benyamin naslidan Givolik Ribay o‘g‘li Etxay,
30 Piraton shahridan Binayo,
Gash soyliklaridan Xuray*,
31 Bayt–Araba shahridan Abualvon,
Boxurim shahridan Ozmobit,
32-33 Shalbim shahridan Eliyaxba,
Yoshonning o‘g‘illari,
Xaror shahridan Shaxey o‘g‘li Yo‘natan*,
Xarorlik Shoror o‘g‘li Oxiyom,
34 Maxo shahridan Axazbay o‘g‘li Elifalet,
Gilox shahridan Oxitofel o‘g‘li Eliyom,
35 Karmil shahridan Xazro,
Orov shahridan Paray,
36 Zo‘vo shahridan Natan o‘g‘li Yixal,
Gad qabilasidan Banix,
37 Ommon xalqidan Zilax,
Baro‘t shahridan Zeruya o‘g‘li Yo‘abning qurolbardori Naxray,
38 Yitar urug‘idan Ero va Goriv,
39 Xet xalqidan Uriyo.

Hammasi bo‘lib o‘ttiz yetti kishi edi.

24–BOB

Dovud aholini ro‘yxat qiladi

1 Isroil xalqiga Egamiz yana g‘azabini sochdi. Egamiz xalqqa zarar yetkazmoqchi bo‘lib, aholini ro‘yxat qilishga Dovudni majbur etdi: “Qani, Isroil va Yahudo xalqini sanab chiq”, dedi.

2 Shoh yonida turgan lashkarboshisi Yo‘abga shunday buyruq berdi:

— Isroilning hamma qabilalarini — Dandan Bershebagacha bo‘lgan joylarni kezib, xalqni sanab chiqinglar, toki qancha aholi borligini men bilayin.

3 Lekin Yo‘ab shunday dedi:

— Egangiz Xudo xalqning hozirgi sonini yuz karra ko‘paytirsin, shoh hazratlari ham o‘sha kunlarni ko‘rsin! Shohim nimaga buni istab qoldilar?

4 Lekin Yo‘ab va lashkarboshilarning so‘zidan shohning so‘zi ustun keldi. Shundan so‘ng ular shohning huzuridan chiqib, Isroil xalqini sanash uchun ketishdi.

5 Ular Iordan daryosini kechib o‘tishdi va Aror shahri yonida chodir qurib, o‘sha yerda istiqomat qiladigan Isroil xalqini sanashdi. Aror shahri soylikdan janubda joylashgan edi. Keyin ular Gad qabilasining hududiga borib, Yazir shahrining aholisini

sanashdi. 6 So‘ng Gilad yerlarini bosib o‘tib, Taxtim–Xodshi yerlariga borishdi. So‘ngra
Danyonga, Danyondan esa Sidon atroflariga aylanib borib, bu yerning xalqini sanashdi.
7 Yana Tir qal’asidagi, Xiv va Kan’on xalqlarining hamma shaharlaridagi Isroil xalqini
sanab chiqishdi. Nihoyat, janubga — Yahudoning Nagav cho‘lidagi Bersheba shahriga
kelishdi. 8 Ular to‘qqiz oy va yigirma kun yurtni u boshidan bu boshigacha aylanib
chiqqanlaridan keyin Quddusga qaytib kelishdi. 9 Yo‘ab ro‘yxat natijasini shohga ma’lum
qildi: Isroilda jang qilishga qodir 800.000 odam, Yahudoda esa 500.000 odam bor ekan.
10 Xalqni sanab chiqqandan so‘ng Dovudning vijdoni qiynaldi.
— Bu ishni qilib og‘ir gunohga botdim, aqlsizlarcha ish tutdim. O‘tinaman, ey Egam,
bu qulingning gunohini kechir, — deb iltijo qildi.
11 Ertasiga ertalab Dovud uyqudan turgach, Dovudning xizmatida bo‘lgan valiy —
Gad payg‘ambarga Egamizning shu so‘zlari ayon bo‘ldi: 12 “Borib Dovudga shu gaplarni
yetkaz: «Egam shunday deb aytmoqda: Men senga uchta jazoni taklif qilaman, shulardan
bittasini tanla, keyin senga o‘sha jazoni yuboraman.»”
13 Gad Dovudning huzuriga borib, uchta jazoni birma–bir bayon qildi:
— Yurtingda uch* yil ocharchilik bo‘lsinmi? Yoki seni ta’qib qiladigan
g‘animlaringdan uch oy qochib yurishni istaysanmi? Yo bo‘lmasa, yurtingda uch kun
o‘lat bo‘lsinmi? Endi yaxshilab o‘yla, meni Yuborganga nima deb javob berayin?
14 — Men juda og‘ir ahvolda qoldim–ku, — dedi Dovud Gadga. — Nima bo‘lsa ham,
odamzodning qo‘liga tushmayin. Mayli, Egamning O‘zi bizni jazolasin, chunki U g‘oyat
rahmdil.
15 Shunday qilib, Egamiz o‘sha kuni ertalabdan belgilangan vaqtgacha Isroil yurtiga
o‘lat yubordi. Butun yurt bo‘ylab — Dandan Bershebagacha bo‘lgan joyda 70.000 kishi
o‘ldi. 16 Egamizning farishtasi, Quddusni yo‘q qilaman deb, qo‘l ko‘targanda, Egamiz
rahm qilib, balo–qazo jo‘natmaydigan bo‘ldi. Xalqni qirayotgan farishtaga:
— Bo‘ldi, bas! Yetadi! — deb amr berdi.
Egamizning farishtasi o‘sha paytda Quddusda — Yobus xalqidan bo‘lgan Aravno
degan odamning xirmonida* edi. 17 Dovud xalqni o‘ldirayotgan farishtani ko‘rgach,
Egamizga dedi:
— Gunoh qilgan menman, men aybdorman! Qo‘yday beozor bu insonlar nima ayb
qilibdi? G‘azabingni menga va otam xonadoniga socha qol!
18 O‘sha kuni Gad Dovudning huzuriga bordi va unga:
— Yobus xalqidan bo‘lgan Aravnoning xirmoniga borib, o‘sha yerda Egamga atab bir
qurbongoh qurgin, — dedi.
19 Dovud Gadning so‘ziga kirib, xuddi Egamiz amr etganiday, xirmonga bordi.
20 Aravno shoh bilan a’yonlarning o‘ziga tomon kelayotganini ko‘rdi va Dovudning
oldiga borib, yerga muk tushib ta’zim qildi.
21 — Shoh hazratlari nechun bu qulining oldiga tashrif buyurdilar? — deb so‘radi.
— Egamga atab bir qurbongoh qurish uchun xirmoningni sendan sotib olgani
keldim, toki o‘lat xalqdan daf bo‘lsin, — dedi Dovud.
22 — Shoh hazratlari nimani ma’qul topsalar, Egamizga o‘shani nazr qilsinlar, — dedi
Aravno. — Ana, kuydiriladigan qurbonliklar uchun ho‘kizlar, o‘tin uchun esa xo‘ptir* va
ho‘kizlarning bo‘yinturuqlari bor. 23 Ey shohim, bularning hammasini sizga in’om
etaman.
Keyin qo‘shib qo‘ydi:

— Egangiz Xudo sizdan rozi boʻlsin!
24 — Boʻlmaydi! — dedi shoh. — Sendan bu narsalarni oʻz bahosida sotib olaman.
Tekin tushgan qurbonliklarni Egam Xudoga kuydirib nazr qilmayman.
Shundan soʻng Dovud xirmonni va hoʻkizlarni ellik kumush tangaga* sotib oldi.
25 Dovud oʻsha yerda Egamizga atab qurbongoh qurib, kuydiriladigan qurbonliklar va
tinchlik qurbonliklarini atadi. Egamiz esa Isroil yurti uchun Dovudning iltijolariga javob
berdi. Shunday qilib, Isroildan oʻlat daf qilindi.

IZOHLAR

1:2 *U qayg‘udan kiyimlarini yirtgan, boshiga tuproq sochgan…* — kiyimlarni yirtish va boshga tuproq sochish umidsizlikni va qayg‘uli holatni ifodalaydi.

1:6 *Gilbova tog‘i* — Jalila ko‘lidan qariyb 32 kilometr janubi–g‘arbda joylashgan.

1:10 *…uni o‘ldirdim* — Shoulning o‘limi haqida bu yigit aytgan hikoya 1 Shohlar 31:3-5 da yozilgan voqeaga to‘g‘ri kelmaydi. Bu yigit Isroil xalqining dushmani bo‘lgan Omolek xalqidan edi (1 Shohlar 15:1-3 ga qarang). Shoul o‘lgan paytda o‘sha yigit nima uchun Gilbova tog‘ida bo‘lgani aniq emas. U o‘lgan sipohlarning qimmatbaho narsalarini o‘marish uchun o‘sha yerga borgan bo‘lishi mumkin. Yigit Dovudga yoqish va undan mukofot olish ilinjida shu voqeani ichidan to‘qib aytgan bo‘lishi ehtimoldan holi emas (4:10 ga qarang).

1:18 *ushbu marsiya* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *yoy*, bu marsiyaning nomi bo‘lishi mumkin.

1:18 *“Yoshur” kitobi* — ibroniychadagi ma’nosi *“Solihlar” kitobi*. Ehtimol, bu kitob jangnoma bo‘lib, qadimiy dostonlar va qo‘shiqlar majmuasidan iborat edi. Bu kitob hozirgi kungacha saqlanib qolmagan. Yoshua 10:13 da ham o‘sha kitobga ishora qilingan.

1:20 *Gat…Ashqalon* — Filistlarning beshta shaharlaridan ikkitasi edi (1 Shohlar 6:17 ga qarang).

1:21 *Gilbova tog‘lari* — Shoul o‘ldirilgan joyga ishora. Shu bobning 6–oyatiga va o‘sha oyatning izohiga qarang (yana 1 Shohlar 31:1-10 ga qarang).

1:21 *…qalqoniga moy surtilmas endi* — ba’zi qalqonlar qattiq charmdan qilinib, bular yaxshi saqlanishi uchun zaytun moyi surtilgan.

2:1 *…Egamizdan…deb so‘radi* — shoh biror muhim qaror chiqarishdan oldin, Xudoning xohishini bilish uchun ruhoniylarga murojaat qilardi. Bunday hollarda ruhoniylar Urim va Tummim degan muqaddas narsalardan foydalanishardi. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun Chiqish 28:15 ning ikkinchi izohiga qarang. Xudo O‘z xohish–irodasini odamlarga ba’zan payg‘ambarlar yoki tushlar orqali bildirgan (1 Shohlar 14:36, 28:6 ga qarang).

2:8 *Abnur* — Shoulning amakivachchasi (1 Shohlar 14:50-51 ga qarang).

2:8 *Moxanayim shahri* — Giladda, Iordan daryosining sharq tomonida joylashgan.

2:9 *Osher* — ibroniycha matnda *Oshur*. Bu ism Osherning boshqa shakli bo‘lishi mumkin. Osher Isroil qabilalaridan biri edi.

2:9 *Isroil* — shimoliy qabilalardan tashkil topgan xalq nazarda tutilgan.

2:12 *Givon shahri* — Quddusdan qariyb 6 kilometr shimoli–g‘arbda joylashgan.

2:13 *Zeruya* — Zeruya Dovudning opasi, Yo‘ab esa Dovudning jiyani edi (1 Solnomalar 2:16 ga qarang).

2:13 *Givon hovuzi* — bu hovuz shaharga yaqin joyda bo‘lib, undan suv saqlash uchun foydalanilgan.

2:16 *“Tig‘lar maydoni”* — ibroniycha matnda *“Xelkat–Xazurim”*, ma’nosi *tig‘lar maydoni*, yoki *xusumat maydoni*.

2:29 *Iordan vodiysi* — ibroniycha matnda *Araba*. Araba umumiy geografik nom bo‘lib, bu oyatda Iordan vodiysining bir qismiga, aynan O‘lik dengizning shimolidagi yerlarga nisbatan ishlatilgan.

2:29 *…jarlikni yoqalab…* — yoki *…Bitron bo‘ylab davom etdi….*

3:3 *Doniyor* — Qumron qo‘lyozmalaridan (yana 1 Solnomalar 3:1 ga qarang). Ibroniycha matnda *Xilov*. Doniyor ismining ma’nosi “Xudo menga qozi”, Xudo Navolga — Obigaylning sobiq eriga jazo berganini eslatish maqsadida bolaga aynan shu ism berilgan bo‘lishi mumkin (1 Shohlar 25:39 ga qarang).

3:7 *kanizak* — ibroniycha matnda bu so‘zning ma’nosi quyidagicha: cho‘ri bo‘lgan bu ayollar qonuniy xotin bo‘lmasalar–da, xo‘jayinlari ular bilan jinsiy aloqada bo‘lishgan. Qadimgi paytlarda bu ayollarning jiddiy qonuniy huquqlari bo‘lib, xo‘jayinlari ularning erlari sifatida bo‘lgan. Rizpa Shoulning kanizagi bo‘lgani sababli, bo‘lajak shohning qonuniy mulki bo‘lib o‘tardi.

3:9-10 *…Dandan Bershebagacha…* — Isroil xalqining jamiki yerlarini tasvirlashning bir yo‘li, ya’ni shimoldan janubgacha degan ma’noda kelgan.

3:14 *Men uni…evaziga olgan edim* — 1 Shohlar 18:20-27 ga qarang.

3:15 *Palti* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Paltiyol*. Uning Palti degan shakli 1 Shohlar 25:44 dan olingan.

3:19 *Benyamin odamlari* — Shoul ham shu qabiladan edi.

3:29 *teri kasalligi* — bu ibora ibroniychada har xil teri kasalliklariga nisbatan ishlatilgan so‘zning tarjimasidir. Odatda bu ibora moxov kasalligiga ishora deb tushuniladi. Teri kasalliklaridan birortasiga yo‘liqqan kishi harom hisoblanar edi. Xasta odam kasalligini boshqalarga yuqtirmasligi va ularni harom qilmasligi uchun, boshqalardan ajratib qo‘yilar edi (Levilar 13:45-46 ga qarang).

3:31 *Kiyimlaringizni yirtib, qanorga o‘raninglar* — qanor dag‘al qoramtir mato bo‘lib, echki yoki tuya junidan to‘qilgan. Kiyimlarni yirtish va qanorga o‘ranib olish umidsizlikni va qayg‘uli holatni ifodalaydi.

4:6-7 *Iordan vodiysi* — ibroniycha matnda *Araba*. Araba umumiy geografik nom bo‘lib, bu oyatda Iordan vodiysiga nisbatan ishlatilgan.

5:7 *Sion qal’asi* — aslida Yobus xalqining qal’asi, bu qal’a Quddusdagi Sion tepaligida joylashgan edi.

5:9 *Quddusning sharq tomonidagi Millo* — Quddus shahri tepalik ustida edi. Bu tepalikning sharq tomoni o‘pirilib ketgani uchun uni tuzatish shart bo‘lgan. Tepalikning o‘pirilib ketgan joyi tuproq bilan to‘ldirilgan, kengaytirilgan va mustahkamlangan edi. Tepalikning bu qismi Millo deb atalardi.

5:11 *Tir* — Finikiyada muhim ahamiyatga ega bo‘lgan shahar. Bu shahar Isroildan shimolda, O‘rta yer dengizi bo‘yida joylashgan edi. Bugungi kunda bu yer Livan mamlakatining janubiy qismini tashkil qiladi.

5:13 *kanizaklar* — ibroniycha matnda bu so‘zning ma’nosi quyidagicha: cho‘ri bo‘lgan

bu ayollar qonuniy xotin bo‘lmasalar–da, xo‘jayinlari ular bilan jinsiy aloqada bo‘lishgan. Qadimgi paytlarda bu ayollarning jiddiy qonuniy huquqlari bo‘lib, xo‘jayinlari ularning erlari sifatida bo‘lgan.

5:18 *Rafa vodiysi* — Quddusdan bir necha kilometr janubi–g‘arbda joylashgan.

5:19 *…Egamizdan…deb so‘radi* — 2:1 izohiga qarang.

5:20 *“Baal–Perazim”* — ibroniychadagi ma’nosi *toshqinday bosib yo‘q qiluvchi xudo*.

6:2 *Baalax shahri* — Xirat–Yo‘rim shahrining yana bir nomi (1 Solnomalar 13:6 ga qarang).

6:2 *ikki karub* — Ahd sandig‘ining qopqog‘i ustidagi qanotli samoviy mavjudotlar haykallari. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi KARUB, KARUBLAR so‘ziga qarang.

6:3-4 *…Abunadavning tepalikdagi uyida…* — 1 Shohlar 7:1-2 ga qarang.

6:5 *…berilib…* — qadimiy yunoncha tarjimadan (yana 1 Solnomalar 13:8 ga qarang). Ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *…barcha qarag‘ay daraxtlari bilan…*, ba’zi tarjimalarda *Qarag‘ay yog‘ochidan yasalgan hamma asbob turlari bilan*.

6:7 *…Uzzox hurmatsizlik qilgani uchun…* — Ahd sandig‘i muqaddas bo‘lib, Xudo O‘z xalqi orasida ekanining ramzi edi. Ahd sandig‘iga qo‘l tekkizish qat’iyan man etilgandi (Sahroda 4:5-6, 15 ga qarang). Dovud Xudoning ko‘rsatmalariga rioya qilmay (Chiqish 25:12-15 ga qarang), Ahd sandig‘ini aravaga orttirgandi.

6:8 *“Paraz–Uzzox”* — ibroniychadagi ma’nosi *Uzzoxning jazosi*, ya’ni *Xudo Uzzoxni urdi*.

6:10 *Gat* — O‘rta yer dengizi bo‘yida joylashgan bu shahar Filistlarning beshta asosiy shahridan biri edi.

6:14 *ruhoniylarning muqaddas libosi* — ibroniycha matnda *zig‘ir matosidan tikilgan efod*, ya’ni ruhoniylar kiyib yuradigan libos.

6:19 *xurmo* — yoki *bir parchadan go‘sht*.

6:19 *…bir hovuchdan xurmo va bir hovuchdan mayiz…* — qadimgi paytlarda odamlar xurmo va uzumlarni quritgandan keyin, qoqilarni hovuchlarida qattiq siqib, dumaloq shakl berganlar. Shu tariqa qoqilar uzoq vaqt saqlangan va kundalik iste’mol qilinadigan yegulik bo‘lgan.

7:10-11 *xonadon* — ibroniycha matnda *uy*, bu o‘rinda abadiy davom etadigan shoh sulolasiga ishora qiladi. Shu bobning 5–oyatidagi ibroniycha *uy* so‘zi Xudoning uyiga, ya’ni shoh Dovud Xudoga atab qurmoqchi bo‘lgan Ma’badga ishora qiladi. Dovudning mana shu istagiga javoban Xudo *uy* so‘zining ma’nosiga so‘z o‘yin qilib, unga xonadon barpo qilishga, ya’ni sulola ato etishga va’da beradi.

7:18 *…Egamizning huzurida o‘tirib…* — Dovud Quddusda Ahd sandig‘ini qo‘ygan maxsus chodirda o‘tirgan bo‘lishi mumkin (6:16-17 ga qarang). Ahd sandig‘i Xudo O‘z xalqi orasida ekanligining ramzi edi.

7:19 *Sening bu va’dalaring jamiki insonlarga tegishli bo‘lsin…* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *Bu jamiki insoniyat uchun qonundir….*

7:23 *Sen…begona xalqlaru xudolarni quvding* — qadimiy yunoncha tarjimadan (yana

1 Solnomalar 17:21 ga qarang). Ibroniycha matnda *Sen O‘z xalqingni Misrdan, xalqlar va ularning xudolari orasidan olib chiqib, butun olamga shuhratingni yoyding. O‘z yurtingni deb xalqingning oldida buyuk va ajoyib ishlar ko‘rsatding*.

8:1 *...ularni mag‘lub qildi, shu tariqa yurtni ularning hukmronligidan ozod etdi* — yoki *...ularni mag‘lub qildi va Matex–Ommoh shahrini Filistlardan tortib oldi*.

8:3 *Zo‘vo* — bu yurt Damashqdan shimolda joylashgan edi.

8:8 *Tivxat* — ibroniycha matnda bu nomning boshqa varianti *Betax*. Uning Tivxat degan shakli 1 Solnomalar 18:8 dan olingan.

8:9 *Xomat* — bu yurt Zo‘vo yurtidan shimolda joylashgan edi.

8:13 *Tuz vodiysi* — O‘lik dengizning janubidagi o‘lka.

8:12-13 *Edom...[13]...Edom* — ba’zi ibroniy qo‘lyozmalaridan, qadimiy yunoncha va suryoniycha tarjimalardan (yana 1 Solnomalar 18:11-12 ga qarang). Ibroniycha matnda *Oram...[13]...Oram*. Edom yurti O‘lik dengizning janubida joylashgan edi.

8:16 *mushovir* — lug‘aviy ma’nosi *maslahatchi*. Bu o‘rinda *xabarchi*. U shohlik ichidagi va xalq orasidagi xabarni shohga, shohning farmonlarini xalqqa yetkazib turgan.

8:18 *Xaretlik va Palatlik qo‘riqchilar* — Dovud yollagan bu muhojir sipohlar shohning shaxsiy qo‘riqchilari bo‘lib xizmat qilgan.

8:18 *ruhoniy* — yoki *a’yonlar* (1 Solnomalar 8:17 ga qarang).

9:3 *...uning ikkala oyog‘i ham mayib...* — 4:4 ga qarang.

9:11 *...shoh dasturxonidan...* — qadimiy yunoncha tarjimadan (yana shu bobning 13–oyatiga qarang). Ibroniycha matnda *...mening dasturxonimdan...*.

10:1 *Ommon* — bu yurt Iordan daryosining sharq tomonida joylashgan edi.

11:1 *Rabba shahri* — Ommon yurtining poytaxti.

11:2 *...saroy tomiga ko‘tarilib...* — u zamonlarda uylarning tomi tekis bo‘lib, odamlar tomga chiqib dam olishardi.

11:4 *...tozalanish rasm–rusumlarini endi tugatgan ekan* — ayollar har safar oy ko‘rgandan keyin, oxirida qonun–qoidaga binoan tozalanish rasm–rusumlarini ado etishlari talab qilinar edi. Bu o‘rinda o‘sha odatga ishora qilinyapti (Levilar 15:19-30 ga qarang).

11:21 *Gido‘n* — ibroniycha matnda *Yerubbosit*. Yerubbosit — Gido‘nning yana bir ismi Yerubbaalning bir variantidir (Hakamlar 6:32, 7:1 ga qarang).

12:14 *...Egamizni mensimaganing uchun...* — yoki *...Xudoning dushmanlari Undan nafratlanishiga sen sabab bo‘lganing uchun...*.

12:25 *Yodidayo* — ibroniychadagi ma’nosi *Egamning suygani*.

12:30 *Ommon shohining boshidagi toj* — yoki *Milkomning haykali ustidagi toj*. Milkom — Ommon xalqining xudosi Mo‘laxning yana bir nomi.

12:30 *ikki pud* — ibroniycha matnda *bir talant*, taxminan 34 kiloga to‘g‘ri keladi.

13:1 *Omno‘n* — Dovudning to‘ng‘ich o‘g‘li bo‘lib, taxt vorisi edi.

13:3 *Shimo* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Shimox* (shu bobning 32–

oyatida ham bor). Uning Shimo degan shakli 1 Solnomalar 2:13 dan olingan.

13:18 *chiroyli gulli libos* — yoki *yengi uzun libos*.

13:19 *...boshiga kul sochib, ustidagi uzun libosini yirtib tashladi* — boshga kul sochish va kiyimlarni yirtish umidsizlikni va qayg‘uli holatni ifodalaydi.

13:23 *...qo‘ylarining junini qirqtirayotgan edi* — qo‘ylarning junini qirqish bayram sifatida nishonlanar edi.

13:34 *...g‘arb tomondan...* — ibroniycha matndan. Qadimiy yunoncha tarjimada *...Xo‘ronayimga boradigan yo‘ldan...*.

13:37-38 *Talmay* — Absalomning ona tomondan bobosi (3:3 ga qarang).

13:39 *...Absalomni sog‘ina boshladi* — yoki *...u o‘z lashkari bilan Absalomning orqasidan borishni boshqa istamadi*.

14:2 *Taxuva shahri* — Quddusdan qariyb 16 kilometr janubda joylashgan.

14:26 *besh yuz misqol* — ibroniycha matnda *ikki yuz shaqal*, taxminan 2,3 kiloga to‘g‘ri keladi.

15:7 *to‘rt yil* — qadimiy yunoncha va suryoniycha tarjimalardan. Ibroniycha matnda *qirq yil*.

15:12 *Gilox* — Xevronga yaqin shahar.

15:16 *kanizak* — 5:13 izohiga qarang.

15:18 *Xaretlik va Palatlik hamma qo‘riqchilar* — Dovud yollagan bu muhojir sipohlar shohning shaxsiy qo‘riqchilari bo‘lib xizmat qilgan.

15:18 *Gat shahri* — O‘rta yer dengizi bo‘yida joylashgan bu shahar Filistlarning beshta asosiy shahridan biri edi.

15:23 *Qidron soyligi* — Quddusning sharqiy chegarasi hisoblangan.

15:27 *Axir, sen valiysan–ku!* — ibroniycha matndan. Qadimiy yunoncha tarjimada *Menga qara!* Qadimda payg‘ambarni *valiy* deb chaqirish keng tarqalgan edi (1 Shohlar 9:9 ga qarang). Bu o‘rindagi ibroniycha terminning so‘zma–so‘z tarjimasi *ko‘radigan odam*. Bu o‘rinda shoh Dovud, chamasi, g‘ayrirasmiy taklif beradigan termindan foydalanyapti: Dovudning rejasi bo‘yicha, Zodo‘x Quddusga qaytib, unga josus sifatida xizmat qilishi va shaharda nimalar yuz berayotgani to‘g‘risida uni xabardor qilib turishi kerak edi (shu bobning 28, 35, 36–oyatlariga qarang).

15:30 *Zaytun tog‘i* — Quddusdan sharqda, Qidron soyligining narigi tomonidagi tepalik.

15:32 *Orux urug‘i* — Benyamin qabilasining bir urug‘i.

15:32 *...qayg‘udan kiyimlarini yirtgan, boshiga tuproq sochgan edi* — 1:2 izohiga qarang.

16:1 *...hovuch mayiz...* — 6:19 ning ikkinchi izohiga qarang.

16:21 *kanizaklar* — 5:13 izohiga qarang.

16:22 *...otasining kanizaklari oldiga kirdi* — Natan payg‘ambar bu voqea to‘g‘risida bashorat qilgan edi (12:11-12 ga qarang). Absalom bu qilmishi bilan o‘zini shoh deb e’lon qilayotgan edi, chunki odatga ko‘ra shohning kanizaklari navbatdagi shohning mulki bo‘lib o‘tardi.

17:16 *...narigi qirg‘oqqa o‘taversin* — ya’ni Iordan daryosining sharq tomoniga.

17:17 *...Abuatar o‘g‘li Yo‘natan bilan Zodo‘x o‘g‘li Oximas...* — 15:27 ga qarang.

17:17 *En–Ro‘g‘ol bulog‘i* — Quddusdan janubi–sharqda, Qidron soyligida joylashgan.

17:18 *Boxurim shahri* — Quddusdan qariyb 2 kilometr shimoli–sharqda joylashgan.

17:23 *...o‘z shahri...* — Oxitofel Gilox shahridan edi (15:12 ga qarang).

17:25 *Ismoil qavmi* — qadimiy yunoncha tarjimaning ba’zi qo‘lyozmalaridan (yana 1 Solnomalar 2:17 ga qarang). Ibroniycha matnda *Isroil qavmi*.

17:25 *Eter* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Yitro*.

17:27-29 *yasmiq doni* — dukkaklilar oilasiga mansub o‘simlik doni.

18:2 *Gat* — O‘rta yer dengizi bo‘yida joylashgan bu shahar Filistlarning beshta asosiy shahridan biri edi.

18:11 *o‘n kumush tanga* — taxminan 110 grammga to‘g‘ri keladi.

18:12 *ming kumush tanga* — taxminan 11 kiloga to‘g‘ri keladi.

18:18 *...bitta ham o‘g‘lim yo‘q...* — bir vaqtlar Absalomning uchta o‘g‘li bo‘lgan edi (14:27 ga qarang). Lekin ular yo yoshligida vafot etganlar yoki Absalom Omno‘nni o‘ldirgani uchun qatl qilinganlar.

18:18 *Shoh soyligi* — Qidron soyligining bir qismi bo‘lib, Quddus shahridan janubi–sharqda joylashgan. Soylik — ikki adir oralig‘idagi pastlik. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi SOYLIK so‘ziga qarang.

18:18 *...shu kungacha...* — shu kitob yozilgan vaqtga ishora.

18:21 *Habashistonlik bir odam* — ibroniycha matnda *Kushlik bir odam* (shu bobning 22, 23, 31, 32–oyatlarida ham bor). Kush degan joy Misrdan janubda bo‘lib, hozirgi Sudan va Efiopiya mamlakatlarining bir qismini o‘z ichiga olgan edi.

18:24 *...shahar darvozasi oldida...* — qadimgi paytlarda shahar darvozasi odatda bir inshoot bo‘lib, tashqi va ichki darvozalardan iborat edi. Bitta darvoza devorning tashqarisida, ikkinchi darvoza devorning ichkarisida joylashgan edi. Dovud mana shu ikki darvozaning o‘rtasida o‘tirgan edi.

19:5 *kanizaklar* — 5:13 izohiga qarang.

19:15 *Gilgal* — bu joy Iordan daryosining g‘arbiy qirg‘og‘idan qariyb 8 kilometr masofada bo‘lgan. Shoh Dovud bilan uning lashkari esa daryoning sharq tomonida edilar.

19:19 *...men qilgan gunoh...* — 16:5-14 ga qarang.

19:29 *yerlar* — Shoulga qarashli bo‘lgan joylar (9:7-9, 16:4 ga qarang).

19:39 *...Iordan daryosini kechib o‘tdilar* — ya’ni daryoning g‘arb tomoniga o‘tdilar.

19:40 *Isroil* — 2:9 ning ikkinchi izohiga qarang.

20:1 *Isroil* — 2:9 ning ikkinchi izohiga qarang.

20:3 *kanizak* — 5:13 izohiga qarang.

20:3 *...birortasi bilan birga bo‘lmadi* — chunki Absalom otasi Dovudning kanizaklari

oldiga kirgan edi (16:21, 22 ga qarang).

20:7 *Xaretlik va Palatlik qo‘riqchilar* — Dovud yollagan bu muhojir sipohlar shohning shaxsiy qo‘riqchilari bo‘lib xizmat qilgan.

20:8 *Givon* — Quddusdan qariyb 6 kilometr shimoli–g‘arbda joylashgan.

20:14 *Ovil–Bayt–Maxo shahri* — Isroil yurtining eng shimoliy chekkasida joylashgan, Dan shahridan uncha uzoq emas.

20:14 *Bixri* — qadimiy yunoncha va lotincha tarjimalardan. Ibroniycha matnda *Berim*.

20:15 *...shahar devoriga qiyalatib tuproq uydilar...* — qadimgi davrlarda dushmanlar devor bilan o‘ralgan shaharga hujum qilayotganlarida, ko‘pincha devorga qiyalatib tuproq uyganlar. Shu yo‘l bilan ular shaharni himoya qilayotgan xalqqa hujum qilish uchun devorni buzishga yoki oshib o‘tishga qulay imkoniyat yaratganlar.

20:24 *Odoniram* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Odoram*.

20:24 *mushovir* — lug‘aviy ma’nosi *maslahatchi*. Bu o‘rinda *xabarchi*. U shohlik ichidagi va xalq orasidagi xabarni shohga, shohning farmonlarini xalqqa yetkazib turgan.

21:1 *...Egamizdan shu haqda so‘ragan edi...* — 2:1 izohiga qarang.

21:2 *Amor xalqlari* — bu o‘rinda umumiy nom bo‘lib, bu nom ostida Isroil xalqi Kan’on yurtini egallamasdan oldin o‘sha yerda yashagan jamiki xalqlar nazarda tutilgan.

21:2 *ont ichishgan edi* — Yoshua 9:3-27 ga qarang.

21:8 *Merav* — ba’zi ibroniy qo‘lyozmalaridan, qadimiy yunoncha tarjimaning ba’zi qo‘lyozmalaridan va qadimiy suryoniycha tarjimadan. Ibroniycha matnda *Mixal*, ammo 1 Shohlar 18:19 ga ko‘ra, Shoulning katta qizi Merav Maxlalik Odriyolga turmushga chiqqan edi. Shoulning qizi Mixal farzand ko‘rmagan.

21:9 *arpa o‘rimining ilk kunlari* — aprelning oxiri yoki mayning boshi.

21:10 *qanor* — dag‘al qoramtir mato bo‘lib, echki yoki tuya junidan to‘qilgan.

21:10 *...yomg‘ir yoqqunga qadar...* — odatda o‘sha yerlarda may oyidan sentabrgacha yomg‘ir yog‘magan.

21:11 *kanizak* — 5:13 izohiga qarang.

21:12 *Giladdagi Yobosh xalqi...u yerdan olib ketishgan edi* — 1 Shohlar 31:8-13 ga qarang.

21:16 *Rafa xalqi* — Isroil xalqidan avval Kan’onda yashagan, gavdasi ulkan, kuchli jangchilari bilan mashhur bo‘lgan xalq (Qonunlar 2:10-11, 20-21, 3:11 ga qarang).

21:16 *750 misqol* — ibroniycha matnda *300 shaqal*, taxminan 3,4 kiloga to‘g‘ri keladi.

21:17 *Abushay* — Dovudning jiyani, Yo‘abning akasi.

21:19 *Yovir* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Yaro‘ragim*. Uning Yovir degan shakli 2 Shohlar 21:18 dan olingan.

21:19 *Gat* — O‘rta yer dengizi bo‘yida joylashgan bu shahar Filistlarning beshta asosiy shahridan biri edi.

21:19 *Go‘liyotning ukasi* — 1 Solnomalar 20:5 dan olingan (yana 1 Shohlar 17:4-11, 40-54 ga qarang). Ibroniycha matnda *Go‘liyot*.

22:2 *qoya* — bu obraz ba’zan ibroniy she’riyatida ko‘chma ma’noda qo‘llangan bo‘lib, Egamizni toqqa o‘xshatadi. Egamizning xalqi o‘z dushmanlaridan qutulish uchun, qochib Egamizda panoh topadi. Bu obraz Egamizning barqarorligini va qoyaday mustahkam ekanligini ko‘rsatadi.

22:3 *qudratli najotkorim* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *najotimning shoxi* yoki *meni qutqaradigan shox*. Ho‘kizning shoxi kuch–qudrat ramzi edi, chunki ho‘kiz qadimiy Yaqin Sharqdagi eng kuchli hayvonlardan biri edi.

22:6 *o‘liklar diyori* — ibroniycha matnda *Sheo‘l*. Qadimda Isroil xalqi *Sheo‘l*ni yer ostidagi tubsiz chuqurlik, marhumlar boradigan qorong‘i joy deb tushunardi.

22:8 *Osmon poydevori* — qadimda Isroil xalqining tasavvuriga ko‘ra, osmon gumbazga o‘xshaydi va yer ostidagi tubsizlikning poydevoriga o‘rnatilgan ulkan ustunlarga tayanadi (yana shu bobning 16–oyatiga va o‘sha oyatning izohiga qarang).

22:11 *karub* — qanotli samoviy mavjudot. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi KARUB, KARUBLAR so‘ziga qarang.

22:16 *Zamin poydevori* — qadimda Isroil xalqining tasavvuriga ko‘ra, yer tep–tekis bo‘lib, yer ostida buyuk dengiz bor edi, dengiz tubida o‘rnatilgan ulkan ustunlar yerni ushlab turardi. Bu ustunlar dengiz tubidagi poydevorga tayanardi.

22:17 *Bahaybat suvlardan…* — *haddan ortiq xavf–xatardan* degan ma’nodagi majoziy tasvir.

23:3 *Qoya* — 22:2 izohiga qarang.

23:8 *Xaxmo‘n…Yoshuvam* — ibroniycha matnda bu ismlarning boshqa variantlari *Taxkamon…Yo‘shabashat*. Bu ismlarning Xaxmo‘n va Yoshuvam degan shakllari 1 Solnomalar 11:11 dan olingan.

23:8 *“Uch qahramon”* — bular eng dongdor jangchilar guruhi edi. Ular mashhur “O‘ttiz qahramon” guruhining maxsus bir qismi bo‘lgan.

23:8 *U nayzasi bilan sakkiz yuz kishiga hujum qilib, hammasini bir jangda o‘ldirgan edi* — qadimiy yunoncha tarjimaning ba’zi qo‘lyozmalaridan (yana 1 Solnomalar 11:1 ga qarang). Ibroniycha matnda *U Ezlik Adino bo‘lib, bir paytning o‘zida sakkiz yuz kishini o‘ldirgan edi*.

23:11 *yasmiq* — dukkaklilar oilasiga mansub o‘simlik doni.

23:13 *“O‘ttiz qahramon”* — mashhurlikda ikkinchi o‘rinda turgan jangchilar guruhi.

23:13 *…o‘sha uchalasi (ular “O‘ttiz qahramon” guruhi tarkibiga kirar edilar)…* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *…o‘ttiztadan uchtasi…*. Ba’zilar, matnda “Uch qahramon”dan boshqa uchta jangchiga ishora qilinadi, deb tushunadilar. Lekin shu bobdagi 17–oyatning ikkinchi qismida berilgan xulosada, 8-17–oyatlarda o‘sha uchta jangchi to‘g‘risida so‘z ketyapti, degan fikr aytiladi.

23:13 *…Adullam g‘origa ketdilar* — Dovud Shoulning ta’qibidan qochib yurgan paytda bu voqea yuz bergan bo‘lishi mumkin (1 Shohlar 22:1-6 ga qarang).

23:13 *Rafa vodiysi* — Quddusdan bir necha kilometr janubi–g‘arbda joylashgan.

23:18 *O‘ttiz* — ba’zi ibroniy qo‘lyozmalaridan va qadimiy suryoniycha tarjimadan. Ibroniycha matnda *Uch*. “Uch” va “o‘ttiz” so‘zlari ibroniychada deyarli bir xil yoziladi.

Shu bobning 19–oyatida ham bor.

23:20 *Mo‘ablik ikki dovyurak odam* — yoki *Mo‘abdagi ikkita ulkan sher* yoxud *Mo‘ablik Oriyolning ikki o‘g‘li*.

23:27 *Sibaxay* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Mavunnay*. Uning Sibaxay degan shakli 1 Solnomalar 11:29 dan olingan.

23:29 *Xaled* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Xalev*. Uning Xaled degan shakli 1 Solnomalar 11:30 dan olingan.

23:30 *Xuray* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Xidoy*. Uning Xuray degan shakli 1 Solnomalar 11:32 dan olingan.

23:32-33 *…Xaror shahridan Shaxey o‘g‘li Yo‘natan…* — ibroniycha matnda *…Yo‘natan, Xaror shahridan Shammox…*. “Xaror shahridan Shaxey o‘g‘li Yo‘natan” degan ibora 1 Solnomalar 11:34 dan olingan. Qadimiy yunoncha tarjimaning ba’zi qo‘lyozmalarida *Xaror shahridan Shammox o‘g‘li Yo‘natan*.

24:13 *uch* — qadimiy yunoncha tarjimadan (yana 1 Solnomalar 21:12 ga qarang). Ibroniycha matnda *yetti*.

24:16 *…Yobus xalqidan bo‘lgan Aravno degan odamning xirmonida…* — bu joy qadimgi Quddusning tashqarisidagi tepalikda joylashgan. Keyinroq Sulaymon Ma’badni shu yerda qurgan (1 Solnomalar 22:1, 2 Solnomalar 3:1 ga qarang).

24:22 *xo‘ptir* — ostiga uchli tosh yoki temir mahkamlangan og‘ir taxta. Donni boshoqdan ajratib olish uchun o‘rilib xirmonga yoyilgan bug‘doy ustidan xo‘ptir yurgizilardi.

24:24 *ellik kumush tanga* — ibroniycha matnda *ellik shaqal kumush*, taxminan 550 grammga to‘g‘ri keladi.

SHOHLAR
(UCHINCHI KITOB)

Kirish

“Shohlar (uchinchi kitob)”da Isroil tarixining davomi bayon qilinadi. Mazkur kitobdagi voqealar tafsiloti Dovud va Sulaymonning birlashgan shohlikka hukmronlik qilish davri bilan boshlanadi. Kitobning davomida shohlikning bo‘linib ketishi, mustaqil Yahudo va Isroil shohliklarining yuzaga kelishi va o‘sha shohliklarning ilk davri bayon qilinadi. O‘sha davrda hukmronlik qilgan shohlarning muvaffaqiyati ularning siyosiy yoki iqtisodiy yutuqlari bilan emas, balki Xudoga bo‘lgan sadoqati bilan baholanar edi. Bu kitobda “Shohlar (to‘rtinchi kitob)” bilan birga Yahudo va Isroil tarixining faqat e’tiborga sazovor bo‘lgan muayyan voqealari va shaxslari haqida so‘z yuritiladi. Bundan maqsad — tarixda tanazzulga yuz tutgan ikkala shohlikning qismati to‘g‘risida hikoya qilish orqali kitobxonga axloq borasida saboq berishdir. Bu ikkala shohlikning aholisi payg‘ambarlarga quloq solmay, Xudodan yuz o‘girganlari uchun dushmanlarga mag‘lub bo‘lib, o‘z yurtlaridan surgun qilinadi.

“Shohlar (uchinchi kitob)” va “Shohlar (to‘rtinchi kitob)”ning asl nusxasi bitta ibroniycha kitob bo‘lib, ikkala qismini bitta o‘ramga joylash uzunlik qilgani uchun, kitob ikki qismga — “Shohlar (uchinchi kitob)” va “Shohlar (to‘rtinchi kitob)”ga bo‘lingan.

“Shohlar (uchinchi kitob)” uch qismdan iborat. Birinchi qismda (1-2–boblar) shoh Dovud hayotining so‘nggi yillari va uning o‘g‘li Sulaymon Isroil shohi bo‘lgani to‘g‘risida hikoya qilinadi. Ikkinchi qism (3-11–boblar) Sulaymon hukmronligi davridagi voqealarni o‘z ichiga olib, bu qismda u qanchalik shuhrat taratgani va boyigani to‘g‘risida hikoya qilinadi. Ikkinchi qismda, asosan, Sulaymon qanday qilib Xudoning Quddusdagi uyini qurgani va uni Xudoga bag‘ishlagani to‘g‘risida bayon qilinadi.

Kitobning qolgan qismi (12-22–boblar) Sulaymonning vafotidan keyin yuz bergan voqealardan — shimoldagi qabilalarning Sulaymon o‘g‘li Raxabomga qarshi isyon ko‘targani, Isroil xalqining ikkita alohida shohlikka bo‘linib ketgani to‘g‘risidagi voqealardan iborat. Janubdagi shohlik — Yahudo, shimoldagisi — Isroil deb ataladigan bo‘ladi. Kitobning bu qismi ikkala shohlikning hukmdorlari tarixini o‘z ichiga oladi. Har bir shoh Xudoga bo‘lgan sodiqligiga qarab hukm qilinadi. Agar shoh Xudoning qonuniga sodiq bo‘lib, Unga itoat etsa, yaxshi deb maqtaladi. Agar Xudoga itoatsizlik qilib, to‘g‘ri yo‘ldan ozsa, qabih deb hukm qilinadi. Hamma Isroil shohlari Xudodan yuz o‘girib, begona xudolarga sajda qilganlari uchun, qabih shohlar deb hukm qilinadi. Yahudo shohlarining ko‘pchiligi o‘z bobolari shoh Dovuddan namuna olib, uning yo‘lidan yurganlari va Xudoga sajda qilganlari uchun yaxshi shohlar deb e’tirof etiladi.

“Shohlar (uchinchi kitob)” yana Isroilning, ya’ni shimoliy shohlikning qabih hukmdori Axab va malika Izabelga qarshi turgan Ilyos payg‘ambar to‘g‘risidagi mashhur voqealarni ham qamrab olgan. Ilyos payg‘ambar Isroil xalqini Xudoga itoat etishga va begona xudolarga sajda qilmaslikka da’vat etadi. Ushbu kitob Yahudo shohi Yohushafat va Isroil shohi Oxoziyo hukmronligi davridagi voqealar bilan tugaydi.

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

1–BOB

Shoh Dovud keksayadi

1 Shoh Dovud ancha qarib qoldi*. Uni ko‘rpa–to‘shaklar bilan o‘rab tashlashsa ham,
hech isimas edi. 2 Shunda a’yonlari Dovudga aytishdi:
— Hazrati oliylari uchun yosh, bokira qiz qidirib topsak. O‘sha qiz shohimiz oldida
bo‘lsin, parvarish qilsin, shohimizning quchog‘ida yotsin. Ana shunda shoh hazratlari
isiydilar.
3 Shunday qilib, butun Isroil hududi bo‘ylab chiroyli, bo‘yi yetgan qizni qidirdilar.
Nihoyat, Shunamlik* Obisha ismli qizni topib, shoh huzuriga olib kelishdi. 4 Qiz g‘oyatda
go‘zal edi. U shohni parvarish qilib, uning xizmatida bo‘ldi. Lekin shoh qizga
yaqinlashmadi.

Odoniyo taxtga da’vogar bo‘ladi

5 Absalom vafot etgandan keyin, Xaggitning Dovuddan ko‘rgan o‘g‘li Odoniyo “Men
shoh bo‘laman”*, deb o‘zini juda katta tutadigan bo‘lib qoldi. U o‘ziga jang aravalari,
chavandozlar va ellikta qo‘riqchi oldi. 6 Otasi esa “Nima uchun sen bunday qilyapsan?”
deb hech qachon uni tergamadi. Odoniyo Absalomdan keyingisi bo‘lib, juda chiroyli yigit
edi. 7 U Zeruya o‘g‘li Yo‘ab va ruhoniy Abuatarga maslahat soldi. Ikkovi ham Odoniyo
tarafiga o‘tdilar. 8 Lekin ruhoniy Zodo‘x, Yohayido o‘g‘li Binayo, Natan payg‘ambar,
Shimax, Rey va Dovudning qo‘riqchilari Odoniyo tomonga o‘tmadilar. 9 Odoniyo En–
Ro‘g‘ol bulog‘i* bo‘yidagi Zo‘xalat toshi yonida qo‘y, buqa va boqilgan buzoqlarni
qurbonlik qilib, hamma aka–ukalarini — shoh o‘g‘illarini, shohga qarashli barcha
Yahudo a’yonlarini taklif qildi*. 10 Natan payg‘ambarni, Binayoni, shohning
qo‘riqchilarini, ukasi Sulaymonni esa taklif qilmadi.

Sulaymon taxtga o‘tiradi

11 Shundan so‘ng Natan Sulaymonning onasi Botshevaga dedi:
— Xaggitning o‘g‘li Odoniyo o‘zini o‘zi shoh qilganini, Dovud hazratlari esa bu
ahvoldan bexabar ekanini eshitmadingmi? 12 Endi men senga shunday maslahat
beraman: sen o‘zingning va o‘g‘ling Sulaymonning hayotini qutqar. 13 Shoh Dovud
saroyiga borib, uning huzuriga kirgin. Shohga shunday deb ayt: “Shoh hazratlari bu
cho‘risiga, o‘g‘ling Sulaymon shoh bo‘ladi, mendan keyin taxtga u o‘tiradi, deb va’da
bermaganmidilar?! Nimaga endi Odoniyo shoh bo‘lib qoldi?” 14 Sen u yerda shoh bilan
suhbatni davom ettirayotganingda, men orqangdan kirib, sening gapingni qo‘llab–
quvvatlayman.
15 Botsheva borib, shoh Dovudning xonasiga kirdi: shoh juda munkillab qolgan,
Shunamlik Obisha esa uning xizmatini qilayotgan edi. 16 Botsheva shohga egilib ta’zim
qildi.
— Tila tilagingni, — dedi shoh. 17 Botsheva unga dedi:
— Shoh hazratlari! Bu cho‘ringizga o‘z Egangiz Xudo nomi bilan ont ichib “Mendan
keyin o‘g‘ling Sulaymon shoh bo‘ladi, mendan keyin taxtga u o‘tiradi”, deb va’da bergan
edingiz–ku. 18 Endi esa Odoniyo shoh bo‘lib qolibdi. Shoh hazratlari esa bu haqda hech
narsa bilmaydilar. 19 U bir talay buqa, boqilgan buzoq va qo‘ylar so‘yib, shohimizning
hamma o‘g‘illarini, ruhoniy Abuatarni, lashkarboshi Yo‘abni taklif qilibdi. Qulingiz
Sulaymonni esa taklif qilmabdi. 20 Shoh hazratlari! Jamiki Isroil xalqining ko‘zlari sizga

qadalgan, oʻzingizdan keyin taxtga kim oʻtirishini siz eʼlon qilishingizni kutishyapti.
21 Aks holda, shoh hazratlari olamdan oʻtib, ota–bobolari yoniga ketganlarida, men va
oʻgʻlim Sulaymon xiyonatkorday boʻlib qolamiz.
22 Botsheva shoh bilan gaplashayotganda, Natan paygʻambar yetib keldi. 23 Shunda
shohga: “Natan paygʻambar shu yerdalar, sizni koʻrmoqchilar”, deb xabar berishdi.
Natan shoh huzuriga kirdi–yu, yer oʻpib unga taʼzim qildi. Botsheva esa chiqib ketdi.
24 Keyin Natan shohga dedi:
— Shoh hazratlari! Siz “Mendan keyin Odoniyo shoh boʻladi, mendan keyin taxtga u
oʻtiradi”, deb aytgan edingizmi? 25 U bugun chiqiboq bir talay buqa, boqilgan buzoq,
qoʻylar soʻyib, shohning hamma oʻgʻillarini, qoʻshiningizning lashkarboshilarini va
ruhoniy Abuatarni taklif qildi. Hammalari Odoniyoning huzurida yeb–ichib oʻtirishibdi,
“Yashasin shoh Odoniyo!” deb baqirishyapti. 26 Men, qulingizni, ruhoniy Zodoʻxni,
Yohayido oʻgʻli Binayoni va qulingiz Sulaymonni esa taklif qilmadi. 27 Bularning hammasi
shoh hazratlarining xohishiga koʻra boʻldimi? Shoh hazratlari oʻzlaridan keyin taxtga
kim oʻtirishi haqida biz, qullariga nega ayon qilmadilar?
28 Shunda Dovud: “Botshevani menga chaqiringlar!” — dedi. Botsheva kirib, shoh
qarshisida turdi. Natan chiqib ketdi. 29 Shoh ont ichib Botshevaga aytdi:
— Meni har qanday balolardan doimo saqlab kelgan Xudoyim shohid! 30 Men Isroil
xalqining Xudosi — Egamiz nomi bilan ont ichib, senga “Oʻgʻling Sulaymon shoh boʻladi,
mendan keyin taxtga u oʻtiradi”, deb vaʼda bergan edim. Oʻsha ontimni bugun ado
etaman.
31 Botsheva yer oʻpib, shohga taʼzim qildi:
— Shohimiz Dovud hazratlari dunyo turguncha tursinlar!
32 — Ruhoniy Zodoʻxni, Natan paygʻambarni, Yohayido oʻgʻli Binayoni mening
huzurimga taklif qilinglar! — dedi shoh Dovud. Ular shoh huzuriga kirib keldilar.
33 Shundan soʻng shoh ularga:
— Yoningizga shohingizning qoʻriqchilarini olinglar, — dedi. — Oʻgʻlim Sulaymonni
mening xachirimga oʻtqazib, Gixoʻn bulogʻiga* olib boringlar. 34 U yerda ruhoniy Zodoʻx
va Natan paygʻambar Sulaymonning boshiga moy surtib, uni Isroil shohi qilsinlar. Keyin
burgʻu chalib, baland ovoz bilan: “Yashasin shoh Sulaymon!” deb aytinglar. 35 Soʻng
uning orqasidan qaytib kelinglar. U kelgach, mening taxtimga oʻtirsin, mening oʻrnimga
shoh boʻlsin. Men uni Isroil va Yahudoning* hukmdori qilib tayinladim.
36 Binayo shohga qarata:
— Omin! Shohimiz hazratlarining Xudosi — Egamizning amri ham shunday boʻlsin!
— dedi. 37 — Egamiz doimo shoh hazratlari bilan boʻlgan edi. Bundan keyin U
Sulaymonga yor boʻlsin, Sulaymonning taxtini shohimiz Dovud hazratlari taxtidan ham
yuksak qilsin.
38 Ruhoniy Zodoʻx, Natan paygʻambar, Yohayido oʻgʻli Binayo, shohning Xaretlik va
Palatlik qoʻriqchilari* Sulaymonni shoh Dovudning xachiriga oʻtqazib joʻnadilar.
Nihoyat, uni Gixoʻn bulogʻiga olib keldilar. 39 Ruhoniy Zodoʻx chodirdan* olib kelgan moy
solingan qoʻchqor shoxini* olib chiqdi va Sulaymonning boshiga moy surtdi. Keyin
burgʻu chaldilar. Shunda butun xalq: “Yashasin shoh Sulaymon!” deb qichqirdi. 40 Xalq
Sulaymonga ergashib, nay chalib, oʻyin–kulgi qilib ketdi. Xalqning qiyqirigʻidan goʻyo yer
titrab ketdi.
41 Odoniyo va hamma taklif qilinganlar taomni yeb boʻlar–boʻlmas, shovqin–suronni

eshitib qoldilar. Yoʻab burgʻu ovozini eshitib: “Nimaga bunchalik shovqin? Shaharni larzaga keltiradi–ya”, — dedi. 42 U gapini tugatmagan ham ediki, ruhoniy Abuatarning oʻgʻli Yoʻnatan kirib keldi.

— Kel, — dedi Odoniyo unga, — sen ulugʻ odamsan, yaxshi xabar olib kelyapsan–ov.

43 — Yoʻq, shohimiz Dovud hazratlari Sulaymonni shoh qilib koʻtardilar, — deb javob berdi Yoʻnatan. 44 — Shoh Dovud u bilan birga ruhoniy Zodoʻxni va Natan paygʻambarni, Binayoni, oʻzining Xaretlik va Palatlik qoʻriqchilarini joʻnatdi. Ular Sulaymonni shohning xachiriga oʻtqazishdi. 45 Ruhoniy Zodoʻx va Natan paygʻambar Gixoʻn bulogʻida Sulaymonning boshiga moy surtib, uni shoh qildilar. U yerdan shod–xurram boʻlib qaytib kelishdi. Shuning uchun shahar ola–gʻovur boʻlib qoldi. Sizlar eshitayotgan shovqin–suronning boisi shudir. 46 Sulaymon shohlik taxtiga oʻtiribdi. 47 Shohning aʼyonlari Dovud hazratlarini tabriklash uchun kelib shunday deyishdi: “Sulaymonning nomini Xudoyingiz sizning nomingizdan ham koʻproq ulugʻlasin, uning taxtini sizning taxtingizdan ham yuksaltirsin.” Shoh esa toʻshagida yotganicha Xudoga sajda qilib, 48 shunday dedi: “Isroil xalqining Xudosi — Egamizga hamdu sanolar boʻlsin! U bugun koʻzlarim ochiqligida zurriyotimdan bittasini taxtga oʻtqazdi.”

49 Odoniyoning mehmonlari qoʻrquv ichida oʻrinlaridan turib, hammasi har yoqqa tarqalib ketdilar. 50 Odoniyo ham Sulaymondan qoʻrqqanidan oʻrnidan turdi–yu, qochib borib, qurbongohning burchagidan mahkam ushlab oldi*.

51 Sulaymonga shu xabarni olib keldilar: “Odoniyo shoh Sulaymondan qoʻrqyapti, u qurbongohning burchagini mahkam ushlab olib, Sulaymon, bu qulimni oʻldirmayman, deb oldin menga soʻz bersin, deyapti.”

52 — Agar u menga sodiq boʻlsa, — dedi Sulaymon, — boshidagi bir tola sochiga ham zarar yetmaydi. Bordi–yu, koʻnglida yomonlik boʻlsa, boshini olaman.

53 Shoh Sulaymon odam yuborib, Odoniyoni qurbongohdan oldirib keldi. Odoniyo kelib, shoh Sulaymonga taʼzim qildi. Shundan soʻng Sulaymon: “Bor, uyingga joʻna!” — dedi unga.

2–BOB

Dovudning Sulaymonga vasiyati

1 Dovudning umri oxirlab borayotgan edi. U oʻgʻli Sulaymonga shunday deb vasiyat qildi:

2 — Endi mening ham umrim oxirlab boryapti. Sen qatʼiy irodali, mardonavor boʻl. 3 Egang Xudo qoʻygan talablarni bajar. Musoning Tavrot kitobida yozilganiday, Uning yoʻlidan yurib, farmon va amrlariga, qonun–qoidalari va shartlariga rioya qil. Shunda nima qilsang ham, qayerga borsang ham, har doim baraka topasan. 4 Egamiz men haqimda aytgan mana bu vaʼdasini ado etadi: “Agar oʻgʻillaring Mening oldimda oʻz yoʻllaridan adashmay, butun qalbi bilan, jonu dili bilan sodiq boʻlib yursalar, sening naslingdan boʻlgan erkak zoti to abad Isroil taxtida oʻtiradi.” 5 Yana Zeruya oʻgʻli Yoʻab menga nima qilganini sen bilasan. U Isroilning ikkita lashkarboshisini — Nar oʻgʻli Abnur bilan Eter oʻgʻli Emosani oʻldirib, tinchlik paytida urush davridagiday qon toʻkdi*. Chorigʻidan tortib, beligacha urushdagiday qonga bulgʻandi. 6 Yoʻab ajalidan besh kun burun oʻlsin, oʻliklar diyoriga* tinchgina kirmasin. Shunga aqlingni ishlat. 7 Giladlik Borzulayning oʻgʻillariga sadoqatli boʻl. Ular sening dasturxoningdan taom yeydiganlar

orasida bo‘lsin. Chunki men akang Absalomdan qochib yurganimda, ular mening oldimda hoziru nozir bo‘lishdi*. 8 Esingda bo‘lsin: yoningda Benyamin qabilasidan Boxurimlik Gera o‘g‘li Shimax ham bor. Moxanayimga qochib o‘tayotganimda, u meni yomon qarg‘agan edi*. Lekin keyinroq u meni kutib olish uchun Iordan daryosi bo‘yiga chiqdi. Men Egamiz nomi bilan ont ichib, unga: “Seni o‘ldirmayman”, degan edim*.
9 Lekin sen uni aybsiz deb bilma. Sen aqlli odamsan, nima qilishni o‘zing bilasan. U qarib qolgan bo‘lsa ham, o‘ldirilishi kerak.

Dovudning o‘limi

10 Nihoyat, Dovud olamdan o‘tib, Dovud qal’asida, ota–bobolari yoniga dafn qilindi.
11 Dovud Isroilda qirq yil shohlik qildi: shundan yetti yili Xevronda, o‘ttiz uch yili Quddusda o‘tdi. 12 Shunday qilib, Sulaymon otasi Dovud o‘rniga taxtga o‘tirdi. Uning shohligi mustahkam bo‘ldi.

Odoniyoning o‘limi

13 Xaggitning o‘g‘li Odoniyo Sulaymonning onasi Botsheva huzuriga keldi.
— Tinchlikmi, bu yerga yaxshilik bilan keldingmi? — deb so‘radi Botsheva.
— Ha, yaxshilik bilan, — dedi Odoniyo. 14 — Sizda gapim bor edi.
— Gapiraver, — dedi Botsheva.
15 Odoniyo gap boshladi:
— Yaxshi bilasiz, men shoh bo‘lishim kerak edi*. Butun Isroil xalqi menga, bo‘lajak shoh, deb ko‘z tikib turgan edi. Lekin shohlik qo‘ldan ketdi, Egamizning xohishi bilan ukamga nasib qilgan ekan. 16 Endi sizdan bir o‘tinchim bor, faqat yo‘q demang.
— Gapir, — dedi Botsheva.
17 — Iltimosim shuki, — dedi Odoniyo, — shoh Sulaymon bilan gaplashsangiz, Shunamlik Obishani menga xotinlikka bersa. Siz aytsangiz, yo‘q demaydi.
18 — Yaxshi, men shohga sen to‘g‘ringda aytib ko‘ray–chi, — dedi Botsheva.
19 Botsheva, Odoniyo haqida gaplashay deb, shoh Sulaymon huzuriga ketdi. Shoh unga peshvoz chiqib, ta’zim qildi, keyin yana taxtiga o‘tirdi. Shohning onasi uchun ham taxt qo‘yib berishdi. Botsheva shohning o‘ng tomoniga* o‘tirdi.
20 — Senga bitta kichkinagina iltimosim bor, qaytarmagin, — dedi Botsheva.
— So‘rang, onajon, tilagingiz bajo bo‘lar, — dedi shoh.
21 — Shunamlik Obishani akang Odoniyoga xotinlikka bersang, — dedi Botsheva.
22 Sulaymon kinoyali ohangda onasiga dedi:
— Nimaga Odoniyo uchun siz faqat Shunamlik Obishani so‘rayapsiz? Odoniyo akam bo‘lgandan keyin, u uchun shohlikni ham so‘rayvering. Axir, ruhoniy Abuatar, Zeruya o‘g‘li Yo‘ab uning tarafini olishlarini bilasiz–ku!
23 Shoh Sulaymon Egamiz nomi bilan ont ichib, shunday dedi:
— Agar Odoniyoni shu gapi uchun o‘ldirmasam, Xudo meni har qanday jazoga mubtalo qilsin, undan ham battarrog‘iga duchor qilsin. 24 Otam Dovudning taxtiga meni o‘tqazib, kuch–qudratimni oshirgan va O‘zi aytganiday, mening sulolamni yaratgan Xudo shohid! Odoniyo shu bugunoq o‘ldiriladi!
25 Shoh Sulaymon Binayoni jo‘natdi. Binayo Odoniyoni o‘ldirdi.

Abuatarning badarg‘a qilinishi va Yo‘abning o‘ldirilishi

26 Ruhoniy Abuatarga esa Sulaymon shu gaplarni aytdi:
— Sen Onoto‘tga* — o‘zingning yeringga jo‘nab qol! Sen aslida o‘limga loyiqsan!

Lekin sen otam Dovudning oldida Egamiz Rabbiyning Sandig‘ini olib borgan eding, otam bilan birga har narsaga bardosh bergan eding. Shuning uchun hozir seni o‘ldirmayman!

27 Sulaymon Abuatarni Egamizning ruhoniyligidan mahrum qildi. Shunday qilib, Egamizning Shilo‘da Elax xonadoni haqida aytgan so‘zlari bajo bo‘ldi*.

28 Bu xabarni Yo‘ab ham eshitdi. Absalomga ergashmagan bo‘lsa ham, Odoniyo isyon ko‘targanda, Yo‘ab unga qo‘shilgan edi. Odoniyoning o‘limi haqida eshitgan Yo‘ab Egamizning Muqaddas chodiriga qochib bordi va qurbongohning burchagidan ushlab oldi*. 29 “Yo‘ab Egamizning Chodiriga qochib ketibdi, qurbongoh yonida ekan” degan xabarni Sulaymonga yetkazishdi. Sulaymon o‘sha zahoti Binayoni jo‘natib: “Bor, uni o‘ldirib kel”, deb buyurdi. 30 Binayo Egamizning Chodiriga kelib, Yo‘abga: “Shohimiz seni, Chodirdan chiqsin, deyaptilar”, deb xabar berdi. Yo‘ab esa: “Yo‘q, men shu yerda o‘lishni istayman”, deb javob qildi. Binayo: “Yo‘ab menga shunday–shunday dedi”, deb shohga yetkazdi. 31 Shoh Binayoga:

— U nima degan bo‘lsa, aytganini qil, — dedi, — uni o‘ldirib, dafn qil, toki Yo‘ab to‘kkan begunoh qonlarning javobgarligi mening va otam xonadonining gardanida qolmasin. 32 Egamiz uning qonini o‘zining boshiga yetkazsin. U otam Dovudga bildirmasdan, ikkita solih, o‘ziga qaraganda yaxshi insonni o‘ldirgan edi. Ulardan biri Isroil lashkarboshisi Nar o‘g‘li Abnur, ikkinchisi esa Yahudo lashkarboshisi Eter o‘g‘li Emosa* edi. 33 Ikkovining qoni to abad Yo‘abning gardanida, uning nasli gardanida qolsin. Egamiz Dovudni, uning naslini, xonadonini va toj–taxtini to abad salomat qilsin!

34 So‘ng Binayo borib, Yo‘abni ham o‘ldirdi. Yo‘ab cho‘l yaqinidagi o‘z uyida dafn qilindi. 35 Shoh Sulaymon Yo‘abning o‘rniga Binayoni lashkarboshi, Abuatarning o‘rniga Zodo‘xni ruhoniy qilib tayinladi.

Shimaxning o‘limi

36 Shundan so‘ng shoh odam yuborib, Shimaxni chaqirtirib keldi va unga shunday dedi:

— Quddusda o‘zingga bir uy qur va o‘sha yerda o‘tir. U yerdan hech qayerga chiqma. 37 Shuni bilib qo‘yki, o‘sha yerdan chiqib, Qidron soyligidan* o‘tsang, o‘sha kuniyoq o‘liming muqarrardir. O‘zingning boshingni o‘zing yeysan.

38 — Xo‘p bo‘ladi, shoh hazratlari, gapingiz to‘g‘ri, — dedi Shimax shohga. — Nima buyursalar, men, qulingiz, bajo aylarman.

Shunday qilib, Shimax uzoq vaqt Quddusda yashab qoldi.

39 Lekin oradan uch yil o‘tib, bir voqea yuz berdi: Shimaxning ikki quli Gat* shohi Oxishning yoniga qochib ketdi. Shoh Oxish Maxo deganning o‘g‘li edi. Shimaxga: “Qullaring Gatda ekan”, deb xabar berdilar. 40 Shimax eshagini egarladi va qullarini izlab Gatga — Oxish huzuriga yo‘l oldi. U yerga borib, qullarini qaytarib olib keldi. 41 Shundan keyin Sulaymonga: “Shimax Quddusdan Gatga borib, yana qaytib kelibdi”, deb xabar berdilar. 42 Shoh Shimaxni chaqirtirib kelib, unga shunday dedi:

— Senga: “Bilib qo‘y, Quddusdan chiqib, biror yerga borgan kuningoq o‘lishing muqarrar”, deb Egamiz nomi bilan ont ichdirib, qattiq ogohlantirmaganmidim?! Sen esa: “Xo‘p bo‘ladi! Gapingiz to‘g‘ri” degan eding. 43 Nega Egamizga ichgan ontingga va mening amrimga itoat qilmading?

44 Shoh yana Shimaxga aytdi:

— Otam Dovudga qilgan yomonliklaringni o‘zing bilasan, yuragingda muhrlanib

qolgan. Qilgan yomonliklaring uchun senga Egamizdan qaytsin! 45 Shoh Sulaymon esa
Egamizning marhamatidan bahramand bo‘lsin, Dovudning toj–taxti Egamizning oldida
to abad mustahkam tursin!
46 So‘ng shoh Sulaymon Binayoga amr berdi, u chiqiboq, Shimaxni o‘ldirdi. Shunday
qilib, Sulaymonning shohligi xavf–xatardan xoli bo‘lib, mustahkamlandi.

3–BOB

Sulaymon Egamizdan donolik so‘raydi

1 Sulaymon Misr shohi — fir’avnning qizlaridan biriga uylanib, fir’avn bilan aloqasini
mustahkamladi, xotinini esa Quddusdagi Dovud qal’asiga olib keldi. U o‘z saroyini,
Egamizning uyini va Quddus atrofidagi devorni bitirgunga qadar, xotini o‘sha yerda
yashadi. 2 Xalq hali ham turli joylardagi sajdagohlarda* qurbonlik qilib yurardi, chunki
o‘sha kunlargacha Egamizga atab bir uy qurilmagan edi.
3 Sulaymon Egamizni sevardi, shuning uchun otasi Dovudning ko‘rsatmalari bo‘yicha
yurardi. Lekin u ham sajdagohlarda qurbonlik qilar va tutatqi tutatardi.
4 Shoh qurbonlik qilish uchun Givonga* ketdi. Chunki eng asosiy sajdagoh o‘sha
yerda edi. Sulaymon ilgari ham o‘sha qurbongohda minglab kuydiriladigan qurbonliklar
keltirgan edi.
5 Sulaymon Givonda kechasi tush ko‘rdi. Tushida Egamiz zohir bo‘ldi. Xudo unga:
— Tila tilagingni! — dedi.
6 Sulaymon aytdi:
— Ey Xudoyim! Otam Dovud Sening quling edi. Otam Senga sodiq bo‘lib, solihlik
bilan, to‘g‘ri ko‘ngil bilan yurgani uchun unga ulug‘ sevgingni ko‘rsatding. Otamga
marhamat qilib, bugun uning taxtiga o‘tirmog‘i uchun unga bir o‘g‘il ato etding. 7 Ey
Egam Xudo, endi bu qulingni otam Dovud o‘rniga shoh qilding. Men esa bir yosh
boladayman, ko‘p narsaga aqlim yetmaydi, nima qilishimni ham bilmayman. 8 Endi men,
quling, O‘zing tanlab olgan xalqni boshqarishim lozim. Ko‘pligidan bu xalqni hisoblab
chiqishning imkoni ham yo‘q. 9 Endi xalqingga shohlik qilishim uchun menga aql–idrok
bergin, toki yaxshilik bilan yomonlikning farqiga borayin. Binobarin, Sening shu qadar
behisob xalqingga kim hukmronlik qila oladi?!
10 Sulaymon so‘ragan narsalar Rabbiyga ma’qul bo‘ldi. 11 So‘ng Xudo unga dedi:
— Sen o‘zing uchun uzoq umr so‘ramading, o‘zing uchun boylik istamading,
dushmanlaringning jonini so‘ramading. Aksincha, to‘g‘ri hukm etmoq uchun o‘zingga
aql–idrok so‘rading. 12 O‘zingning so‘raganingga ko‘ra, senga donishmandlik va aql–
idrok ato qilaman. Sendan avval o‘zingga o‘xshagani dunyoga kelmagan edi, bundan
so‘ng ham senga o‘xshagani dunyoga kelmas. 13 Yana o‘zing so‘ramagan narsalarni —
boylik va shon–shuhratni ham beraman: umring bo‘yi shohlar orasida senga teng
keladigani bo‘lmas. 14 Sen ham otang Dovud singari, Mening yo‘llarimdan yursang,
farmonlarimga, amrlarimga rioya qilsang, umringni yanada uzaytiraman.
15 Sulaymon uyg‘onib ketdi, hammasi tush edi. Shundan keyin u Quddusga keldi va
Egamizning Ahd sandig‘i* oldida turib, kuydiriladigan qurbonliklarni va tinchlik
qurbonliklarini keltirdi, hamma a’yonlariga ziyofat berdi.

Sulaymonning donishmandligidan bir lavha

16 Bir kuni ikkita fohisha xotin shohning huzuriga kelib, uning oldiga kirishdi.

17 Xotinlardan biri gap boshladi:
— Hazrati oliylari! Men mana bu ayol bilan bir uyda yashayman. U bilan uyda qolganimda, mening ko‘zim yoridi. 18 Shundan keyin, uchinchi kuni bu ayol ham farzand ko‘rdi. Xullas, biz birga edik. Uyda faqat ikkovimiz, boshqa odam yo‘q edi. 19 Manavi xotin kechasi bolasini bosib olgan ekan, bolasi o‘lib qolibdi. 20 Yarim kechasi turib, men uxlab yotganimda, o‘g‘limni bag‘rimdan olib, o‘zining yoniga qo‘yibdi. Nobud bo‘lgan bolasini esa mening yonimga yotqizib qo‘yibdi. 21 Bolamni emizish uchun saharda tursam, u jonsiz yotgan ekan. Faqat tong yorishgandagina mening o‘g‘lim emasligini bildim.
22 Ikkinchi xotin esa:
— Yo‘q, tirigi — mening o‘g‘lim, o‘lgan bola — seniki! — dedi.
Birinchisi esa:
— Yo‘q, o‘lgan bola — seniki, tirigi — meniki! — dedi.
Shunday qilib, ular shoh huzurida mojaro qilishdi. 23 Nihoyat, shoh dedi:
— Biringiz: “Tirigi — mening o‘g‘lim, nobud bo‘lgani — seniki”, deyapsiz. Ikkinchingiz esa: “Yo‘q, nobud bo‘lgani — seniki, tirigi — meniki”, deyapsiz.
24 Shundan keyin shoh:
— Menga bir qilich olib kelinglar! — deb buyurdi. Shohga qilich olib kelishdi. 25 — Tirik bolani ikkiga bo‘linglar. Yarmini biriga, yarmini esa ikkinchisiga beringlar! — deb buyurdi.
26 Shu zahoti bolasi tirik qolgan ayol shohga dedi:
— Hazrati oliylari! Tirik qolgan bolani manavi ayolga beravering! Uni o‘ldirmasangiz bo‘ldi!
Bu ayolning farzandi uchun joni achirdi.
Narigisi esa:
— Menga ham bo‘lmasin, senga ham, ikkiga bo‘laveringlar! — dedi.
27 Shu onda shoh:
— To‘xtanglar, bolani o‘ldirmanglar! — dedi. — Bolani rahmdil ayolga beringlar, onasi o‘shadir.
28 Shoh chiqargan bu hukmni butun Isroil xalqi eshitdi. Shundan keyin shohdan hayiqadigan bo‘ldilar, chunki e’tibor bersalar, adolatli hukm qilish uchun Xudo unga donishmandlik ato qilgan ekan.

4–BOB

Sulaymonning a’yonlari

1 Sulaymon butun Isroilning shohi edi. 2 Uning qo‘li ostidagi a’yonlar quyidagilar edi:

Zodo‘x o‘g‘li Ozariyo — ruhoniy,
3 Shishoning o‘g‘illari Elixorut va Oxiyo — kotib,
Oxilud o‘g‘li Yohushafat — tarixnavis,
4 Yohayido o‘g‘li Binayo — lashkarboshi,
Zodo‘x bilan Abuatar — ruhoniy,
5 Natan o‘g‘li Ozariyo — hokimlarning nazoratchisi,
Natan o‘g‘li Zabud — ruhoniy va shohning maslahatchisi,

6 Oxisar — saroy boshqaruvchisi,
Abdax o‘g‘li Odoniram — qarollarning boshlig‘i edi.

7 Sulaymonning o‘n ikkita hokimi bo‘lib, ular Isroil hududlarini boshqarar, shohni va shoh xonadonini oziq–ovqat bilan ta’minlardilar. Har bittasi yiliga bir oy davomida shoh xonadoniga oziq–ovqat yetkazib berishi shart edi. 8 Ularning ismlari quyidagicha edi:

Efrayim qirlarida — Banxur,
9 Moxaz, Shalbim, Bayt–Shamash, Elo‘n–Bayt–Xanon degan shaharlarda — Bandaxor,
10 Arbo‘t va So‘xu shaharlarida, butun Xafer o‘lkasida — Banxesed,
11 Butun Nafo‘t–Do‘r* degan joyda — Banabunadav (Sulaymonning qizi To‘fat Banabunadavning xotini edi),
12 Tanax va Magido‘ shaharlarida, butun Bayt–Shan hududida — Oxilud o‘g‘li Bano (bu joy Yizril etagidagi Zoraton shahridan Ovil–Maxla shahrigacha va Yoxmayom shahrining narigi tomoniga qadar bo‘lgan yerlardir),
13 Giladdagi Ramo‘t shahrida — Bangeber, shuningdek, Manashe o‘g‘li Yovir urug‘iga qarashli Gilad o‘lkasidagi qishloqlar, Bashan o‘lkasidagi Argob hududi, devor bilan o‘ralgan va darvozasi bronza tamba bilan mustahkamlangan oltmishta katta shahar ham unga qarashli edi.
14 Moxanayim yerlarida — Iddo o‘g‘li Oxinadav,
15 Naftali hududida — Oximas (u Sulaymonning qizi Bosimatga uylangan edi),
16 Osher hududida va Bolo‘t shahrida — Xushay o‘g‘li Bano,
17 Issaxor yerlarida — Paruvax o‘g‘li Yohushafat,
18 Benyamin yerlarida — Ela o‘g‘li Shimax,
19 Gilad o‘lkasida — Uri o‘g‘li Geber. Ilgari Gilad o‘lkasida Amor shohi Sixo‘n va Bashan shohi O‘g hukmronlik qilishgan.

Yahudo yurtining o‘z hukmdori bor edi*.

Sulaymon hukmronligining ravnaq topishi

20 Yahudo va Isroil xalqi shu qadar ko‘p ediki, go‘yo dengiz qirg‘og‘idagi qumni eslatardi. Ular yeb–ichib, xursandchilik bilan yashardi. 21 Sulaymon Furot daryosidan Filistlar yeriga va Misr chegaralariga qadar bo‘lgan hamma o‘lkalarda shohlik qilardi. Bu o‘lkalardagi xalqlar Sulaymonga o‘lpon to‘lab, umr bo‘yi unga tobe bo‘ldilar.

22 Sulaymon xonadonining bir kunlik ozig‘i quyidagicha edi: 300 tog‘ora* sifatli un va 600 tog‘ora* kepakli un, 23 og‘ilxonada boqilgan 10 ta semiz mol va yaylovda boqilgan 20 ta buqa, 100 ta qo‘y, bulardan tashqari, bug‘ular, kiyiklar, ohular, semiz parrandalar.

24 Furot daryosining g‘arbidagi Tifsaxdan G‘azo shahriga qadar bo‘lgan o‘lkalarda, daryoning g‘arb tomonidagi hamma shohlar ustidan Sulaymon hukmron edi. Atrofdagi hamma yurtlar bilan aloqasi yaxshi edi. 25 Sulaymon hayotligida Dandan Bershebagacha bo‘lgan Yahudo va Isroil yurtidagi har bir odam o‘z uzumzorida, o‘z anjir daraxti ostida tinchgina umr kechirardi.

26 Sulaymonning otxonalarida jang aravalari uchun 4000* oti va 12.000 uchqur otlari bor edi. 27 O‘sha o‘n ikki hokimning har biri shoh Sulaymonni, shoh Sulaymonning dasturxonidan taom yeydiganlarning hammasini belgilangan oyda oziq–ovqat bilan

ta’minlardi, birorta ham kamchilikka yo‘l qo‘yishmasdi. 28 Har biri o‘zining navbati
kelganda shoh tayinlagan yerga* jang aravalarining otlari va boshqa otlar uchun arpa,
somon ham olib kelishardi.
29 Shunday qilib, Xudo Sulaymonga dengiz qirg‘og‘idagi qum kabi cheksiz–chegarasiz
donolik, idrok, tengsiz aql berdi. 30 Sulaymonning donoligi butun sharq xalqlarining
donoligidan, butun Misr xalqining donoligidan ham ortiq edi. 31 U hamma insonlardan,
Zerax urug‘idan bo‘lgan Etxandan, Moxul o‘g‘illari Xaman, Qolko‘l, Dardaxdan ham dono
edi. Atrofdagi hamma xalqlar orasida uning dong‘i ketgan edi. 32 U 3000 matal, 1005 ta
qo‘shiqlar ijro etdi. 33 U Lubnondagi sadr daraxtidan tortib, devorda o‘sgan issopgacha,
qo‘yingki, jamiki dov–daraxtlar, hayvonlar, qushlar, sudralib yuruvchilar, baliqlar
haqida so‘z yuritardi. 34 Sulaymonning donoligi haqida eshitgan dunyodagi hamma
shohlar uning oldiga odamlarini yuborardi. Barcha xalqlardan kelgan bu odamlar
Sulaymonning donoligidan bahramand bo‘lardi.

5–BOB

Sulaymon Egamizning uyini qurishga tayyorgarlik ko‘radi

1 Tir* shohi Xiram: “Sulaymonni otasining o‘rniga moy surtib shoh qilib
ko‘tarishibdi” degan xabarni eshitgach, a’yonlarini uning huzuriga jo‘natdi. Xiram
Dovudni doimo o‘ziga do‘st deb bilardi*. 2 Sulaymon ham Xiram huzuriga a’yonlarini
jo‘natib, shu gaplarni aytib yubordi:

> 3 “Siz bilasizki, otam doimo dushmanlariga qarshi jang qilish bilan band
> bo‘lib, o‘zining Egasi Xudoga atab bir uy bunyod eta olmadi. Nihoyat, Egam otam
> Dovudning dushmanlarini uning oyoqlari ostiga tashladi. 4 Egam Xudo endi
> menga har tarafdan osoyishtalik ato etdi: hozirda na g‘animim bor, na hujum
> xavfi bor. 5 Egam otam Dovudga: «Sendan keyin taxtga o‘g‘lingni o‘tqazganimda,
> Menga atab uyni u barpo qiladi», degan edi. Shuning uchun Egam Xudoga atab bir
> uy qurmoqqa qaror qildim. 6 Endi siz amr bering, Lubnonda menga sadr
> daraxtlari kesib bersinlar. Mening odamlarim sizning odamlaringiz bilan birga
> ishlaydilar. Odamlaringizga siz so‘ragan haqni beraman. O‘zingiz bilasiz, daraxt
> kesishda Sidonlik odamlaringizga teng keladigan ustasi bizning oramizda yo‘q.”

7 Xiram Sulaymon yuborgan xabarni eshitgach, juda xursand bo‘lib, shunday dedi:
“O‘sha buyuk xalqni boshqarish uchun Egamiz Dovudga dono bir o‘g‘il ato qilibdi,
Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin.” 8 Keyin u Sulaymonga shunday xabar jo‘natdi:

> “Menga aytib yuborgan gaplaringni eshitdim. Sadr va sarv daraxti kesishni
> so‘ragan ekansan, ehtiyojingni qondiraman. 9 Qarollarim yog‘ochlarni Lubnondan
> dengizga sudrab keladilar. Qayerni tayin etsang, yog‘ochlardan sol* qilib, dengiz
> sohili bo‘ylab o‘sha yerga keltirib beraman. U yerda sollarni yechdiraman, sen
> esa olib ketaverasan. Mening ehtiyojimni qondirib, odamlarim uchun oziq–ovqat
> berasan.”

10 Shunday qilib, Xiram, Sulaymonning ehtiyojiga ko‘ra, sadr va sarv yog‘ochlari
berdi. 11 Sulaymon esa, Xiramning odamlari iste’mol qilsin deb, 200.000 tog‘ora*

bug‘doy va 40.000 ko‘za* toza moy berdi. U har yili Xiramga shuncha miqdorda bug‘doy va moy berib turdi. 12 Egamiz esa va’dasiga ko‘ra, Sulaymonga donishmandlik berdi. Xiram bilan Sulaymon o‘rtasida totuvlik paydo bo‘lib, ular o‘zaro sulh tuzdilar.

13 Shoh Sulaymon butun Isroildan 30.000 qarolni majburlab oldi. 14 Navbati bilan oyiga 10.000 nafar qarolni Lubnonga jo‘natib turdi. Ular bir oy Lubnonda, ikki oy uyda bo‘lishardi. Bu qarollarga Odoniram boshchilik qilardi. 15 Yana Sulaymonning og‘ir yuk tashuvchi 70.000, qirlarda tosh kesadigan 80.000 odami bor edi. 16 Bulardan tashqari, qarollarni nazorat qiladigan, ishning boshida turadigan 3300 nafar nazoratchi ham bor edi. 17 Sulaymon amr bergach, ular Egamizning uyi poydevorini taroshlangan toshdan barpo qilish uchun yirik marmar toshlarni kesdilar. 18 Sulaymonning odamlari, Xiramning odamlari, Gabolliklar* toshlarni yo‘ndilar, nihoyat, Egamizning uyini qurish uchun daraxt va toshlarni hozirlab bo‘ldilar.

6–BOB

Sulaymon Egamizning uyini quradi

1 Isroil xalqi Misr yurtidan chiqqaniga 480 yil bo‘lganda, Sulaymon Isroil taxtiga o‘tirganiga to‘rt yil bo‘lgan edi*. U o‘sha yilning ikkinchi oyida — Ziv oyida* Egamizning uyini barpo qilishni boshladi. 2 Shoh Sulaymon Egamiz uchun qurayotgan uyning uzunligi 60 tirsak*, eni 20 tirsak, balandligi 30 tirsak edi. 3 Egamiz uyining asosiy xonasi* oldida ayvon bo‘lib, ayvonning uzunligi asosiy xonaning eni bilan bir o‘lchovda — 20 tirsak, eni 10 tirsak edi. 4 Uyga panjarali derazalar ham yasattirdi. 5 Uyning tashqaridagi devorining yoniga va orqasiga uch qavatli yon xonalar qurdirdi. 6 Birinchi qavatning kengligi 5 tirsak, ikkinchi qavatning kengligi 6 tirsak, uchinchi qavatning kengligi 7 tirsak edi. Sulaymon uyning devorlarini, yon xonalarning hajmiga moslab, zinapoya shaklida qurdirdi. Shu sababdan yon xonalar uyning devoriga taqalmagan edi.

7 Uy qurilishi uchun toshlardan foydalanildi. Toshlar konning o‘zida yo‘nib tayyorlandi. Shu sababdan uy qurilayotganda, na bolg‘a, na bolta, na biror temir asbob ovozi eshitildi.

8 O‘rta qavatdagi yon xonaning eshigi uyning janub tomonida edi: aylanma zinapoya orqali o‘rta qavatga, o‘rta qavatdan esa uchinchisiga chiqilardi. 9 Shunday qilib, Sulaymon uyning devorlarini qurib bitkazdi. So‘ng uyning tomini sadr daraxtidan qilingan to‘sinlar va taxtalar bilan yopdi. 10 Uyning aylanasi bo‘ylab qurilgan yon xonalarning har bir qavatining balandligi 5 tirsak edi. To‘sinlar yon xonalar bilan uyning devorini bog‘lab turardi.

11 Egamiz Sulaymonga shu so‘zlarni ayon qildi:

12 — Mana, sen uyni quryapsan. Agar Mening farmonlarimga ko‘ra yursang, qonun–qoidalarimga rioya etsang, hamma amrlarimga itoat qilsang, o‘shanda otang Dovudga bergan va’dalarimni sen orqali bajaraman. 13 Har doim Isroil xalqi orasidan maskan qilaman, xalqim Isroilni aslo tark etmayman.

14 Shunday qilib, Sulaymon Xudoning uyini qurib bo‘ldi.

Egamiz uyining bezaklari haqida batafsil ma’lumotlar

15 Sulaymon Egamiz uyining devori ichkarisini yerdan shiftiga qadar sadr yog‘ochidan qilingan taxta bilan qoplatdi. Polini sarv yog‘ochi taxtasidan qildi. 16 Ichki xona uyning ichkarisiga qurilgan bo‘lib, yerdan shiftiga qadar sadr yog‘ochi bilan

ajratilgan edi. Bu xona Eng muqaddas xona deb ataldi. Bu xonaning bo‘yi 20 tirsak chiqardi. 17 Asosiy xonaning bo‘yi esa 40 tirsak bo‘lib, bu xona Eng muqaddas xonaning old tomonida edi. 18 Uyning ichkarisi sadr taxtalari bilan qoplanib, taxtalarga qovoq va ochilib turgan gullar surati shunday o‘yilgan ediki, devor toshlari ko‘rinmas edi.

19 Eng muqaddas xona Egamizning Ahd sandig‘ini qo‘yish uchun hozirlangan edi.
20 O‘sha xonaning uzunligi ichki tarafdan 20 tirsak, kengligi 20 tirsak, balandligi ham 20 tirsak edi. Sulaymon bu xonani toza oltin bilan qoplatdi. Sadr yog‘ochidan yasalgan tutatqi qurbongohini ham oltin bilan qoplatdi*. 21 Sulaymon uyning asosiy xonasini ham oltin bilan qoplatdi. Oltin bilan qoplangan Eng muqaddas xonaning old tomoniga oltin zanjirlar torttirdi. 22 Shunday qilib, Sulaymon uyning hamma joyini boshdan oxirigacha oltin bilan qoplatdi. Eng muqaddas xonaning kiraverishidagi tutatqi qurbongohini ham tamomila oltin bilan qoplatdi.

23 So‘ng Eng muqaddas xonaga qo‘yish uchun zaytun daraxti yog‘ochidan ikkita karub* yasattirdi. Karublarning balandligi 10 tirsak edi. 24 Karublarning qanotlari 5 tirsakdan edi. Qanotlarning u uchidan bu uchigacha hammasi bo‘lib 10 tirsak chiqardi.
25 Har ikkala karubning shakli, hajmi bir edi. 26 Har bir karubning balandligi 10 tirsak edi. 27 Sulaymon karublarni Eng muqaddas xonaga yonma–yon qo‘ydi. Karublarning qanotlari cho‘zilib ketgan, birining qanoti bir devorga, ikkinchisining qanoti esa narigi devorga tegib turardi. Uyning o‘rtasida esa ikkovining qanotlari bir–biriga tutashardi.
28 Sulaymon karublarni ham toza oltin bilan qoplatdi.

29 Ikkala xonaning devoriga gir aylanasi bo‘ylab karublar, palma daraxtlari, ochilib turgan gullarning suratini o‘ydirdi. 30 Bu xonalarning polini ham oltin bilan qoplatdi.

31 Eng muqaddas xonaning kirish joyiga zaytun yog‘ochidan ikki tavaqali eshik yasattirdi. Eshikning kesakisi* besh qirrali edi. 32 Zaytun yog‘ochidan yasalgan ikki tavaqali eshikka karublar, palma daraxtlari, ochilib turgan gullar suratini o‘ydirdi, so‘ng eshik ustini, karublar va palma daraxtlari suratini ham oltin bilan qoplatdi.

33 Asosiy xonaning kiraverishidagi to‘rt burchakli kesakini zaytun yog‘ochidan,
34 ikkita eshikni sarv daraxti yog‘ochidan yasadi. Eshiklarning har biri ikki tavaqali, yig‘ma edi. 35 Eshiklarning yuzasiga ham karublar, palma daraxti, ochilib turgan gullar suratini o‘ydirib, ularni oltin bilan bir tekis qilib qoplatdi. 36 Ichki hovli devorlarining uch qatorini taroshlangan toshdan, bir qatorini sadr yog‘ochidan qildirdi.

37 Egamiz uyining poydevori Sulaymon hukmronligining to‘rtinchi yilida, aynan Ziv oyida* qo‘yilib, 38 o‘n birinchi yilning sakkizinchi oyida — Bul oyida* loyihaga binoan batamom, hamma ikir–chikirigacha qurib bitkazildi. Shunday qilib, Sulaymon uyni yetti yil davomida bunyod qildi.

7–BOB

Sulaymonning saroyi

1 Sulaymon o‘ziga ham saroy qurdi. U o‘z saroyini o‘n uch yilda qurib bitkazdi.

2 U dastlab saroydagi “Lubnon o‘rmoni” degan uyni* qurdi. Uyning uzunligi 100 tirsak*, kengligi 50 tirsak, balandligi 30 tirsak bo‘lib, sadr yog‘ochidan to‘rt qator ustun o‘rnatilgan, ustunlar tepasiga sadr yog‘ochidan qilingan to‘sinlar tashlangan edi.
3 Uyning tomi sadr yog‘ochi bilan qoplangan edi. To‘sinlar qirq beshta bo‘lib, har qatorda o‘n beshtadan edi. 4 Yon devorlardagi derazalar uch qator bo‘lib, bir–biriga ro‘parama–

roʻpara edi. 5 Hamma eshiklar va eshiklar kesakisi* toʻrt burchakli qilib yasalgan, yon devorlarda uchtadan eshik boʻlib, bir–biriga roʻparama–roʻpara edi.

6 Sulaymon saroyning “Ustunli koshona”sini ham qurdi. Koshonaning boʻyi 50 tirsak, eni 30 tirsak edi. Koshonaning old tomonida ayvon qurdirib, ustun bilan tiradi. Ayvonning tomi yopilgan edi. 7 Yana saroyning taxt turadigan koshonasini qurdirib, tepasidan pastiga qadar sadr yogʻochi bilan qoplatdi. Sulaymon bu koshonada oʻtirib, hukm chiqarardi.

8 Bu koshonaning orqa tomonidagi hovlida Sulaymon yashaydigan uy bor edi. Bu uy ham ayni shu tarzda qurilgan edi. Sulaymon xotini — fir’avnning qizi uchun ham xuddi shu koshona kabi bir uy qurib berdi.

9 Binolar poydevoridan tomigacha marmar toshlardan qilingan edi. Marmar toshlarning old va orqa tomoni arralab taroshlangan, belgilangan oʻlchovga koʻra tayyorlangan edi. Hovlining devorlari ham shu tarzda qurilgan edi. 10 Poydevorning marmar toshlari yirik, 8 tirsakli, 10 tirsakli edi. 11 Devori ham marmar toshlardan qurilgan edi. Toshlar belgilangan oʻlchovga koʻra, tayyorlanib, taroshlangan edi. Devor qurilishida sadr yogʻochidan ham foydalanildi. 12 Katta hovlining chor atrofi devor bilan oʻralgan boʻlib, uch qator taroshlangan tosh va bir qator sadr yogʻochidan qilingan edi. Egamiz uyining ichki hovlisi bilan ayvonining devorlari ham shunday qilingan edi.

Usta Xurom

13 Shoh Sulaymon Tir shahridan Xurom degan bir odamni chaqirtirib keldi. 14 U Naftali qabilasidan bir beva ayolning oʻgʻli edi. Otasi Tir shahridan boʻlib, misgar oʻtgan edi. Xurom bor iste’dodi, mahorati va aqlini ishga solib, bronzadan turli buyumlar yasashni oʻrganib olgan edi. U Sulaymon huzuriga kelgach, hamma ishlarni bajarib berdi.

Bronzadan yasalgan ikkita ustun

15 Xurom bronzadan ikkita ustun yasadi, har bir ustunning balandligi 18 tirsak, tevaragi 12 tirsak chiqardi. 16 Bronzani eritib yana ikkita ustunqosh yasadi, bu ustunqoshlar ustunlarning tepasiga qoʻyish uchun kerak edi. Ustunqoshlarning balandligi 5 tirsak edi. 17 Ustunqoshlarning har biri yettita toʻrsimon bezaklaru toʻqilgan zanjirlar bilan bezatilgan edi. 18 Ustunqoshlarni qoplash uchun har bir toʻrsimon naqsh atrofidan aylanasiga ikki qator qilib anor* tasviri solingan edi.

19 Har bir ustunning ikkinchi ustunqoshi ham bor edi. Ularning balandligi 4 tirsak boʻlib, lolagul shaklida edi. 20 Ustunqoshning boʻrtiq joylariga toʻrsimon bezaklar solingan boʻlib, bezaklarning tepasi va pastiga aylantirib, 200 ta anor tasviri solingan edi. 21 Xurom ustunlarni uyning ayvoniga oʻrnatdi: janub tomoniga oʻrnatilgan ustunga Yoxin* deb, shimol tomoniga oʻrnatilgan ustunga Boʻaz* deb nom berdi. 22 Ustunlarning tepasi lolagul shaklida edi. Shunday qilib, ustunlar tayyor boʻldi.

Bronzadan yasalgan hovuz

23 Keyin Xurom bronzani eritib dumaloq shaklda hovuz yasadi. Hovuzning bir qirgʻogʻidan narigi qirgʻogʻigacha 10 tirsak, balandligi esa 5 tirsak edi. Aylanasi 30 tirsak edi. 24 Hovuzning tashqi tomonida, qirgʻogʻi ostida aylanasiga ikki qator qovoqsimon boʻrtiq bor edi. Har bir tirsak masofada oʻntadan shunday shakl qilingan edi. Bronza eritilib, hovuz yasalayotgan paytda, bu qovoqsimon boʻrtiqlar ham qilingan edi. 25 Hovuz bronzadan yasalgan oʻn ikkita buqa ustiga oʻrnashtirilgan edi. Buqalarning uchtasi

shimolga, uchtasi g‘arbga, uchtasi janubga va uchtasi sharqqa qaratilgan edi. Buqalarning orqa tomoni hovuzning ichkarisiga qaratilgan edi. 26 Hovuzning qalinligi to‘rt enli bo‘lib, chetlari kosaning chetlariga o‘xshar, shakli lolagulga o‘xshardi. Unga 4000 ko‘za* suv sig‘ardi.

Bronzadan yasalgan aravalar

27 So‘ng Xurom bronzadan o‘nta arava yasadi. Har bir aravaning uzunligi ham, kengligi ham 4 tirsak, balandligi esa 3 tirsak edi. 28 Aravalarning tuzilishi quyidagicha edi: aravalarning to‘rtala tomonida bronzadan yasalgan to‘siqlar bo‘lib, 29 bu to‘siqlarga arslon, buqa va karublarning surati solingan edi. Har bir to‘siqning to‘rt tomoniga bo‘rtiq shaklda gulchambarlar ishlangan edi. 30 Har bir aravaning to‘rtta bronza g‘ildiragi va o‘qlari bor edi. Aravaning har to‘rtala burchagida ham tog‘orani ushlab turadigan tirgovuchlar bor edi. Har bir quyma tirgovuchning yonboshida gulchambarlar yasalgan edi. 31 Aravaning tepasida dumaloq shaklda chambarak bo‘lib, aravadan bir tirsak yuqori chiqib turardi. Chambarak ko‘ndalangiga bir yarim tirsak edi. Chambarak og‘zi ham aylanasiga suratlar bilan bezatilgan edi. Aravalarning to‘siqlari esa to‘rtburchak shaklda edi. 32 Aravalarning to‘rtala g‘ildiragi yon to‘siqlarning ostida edi. G‘ildiraklarning o‘qlari aravaga mahkamlangan, har bir g‘ildirakning balandligi bir yarim tirsak edi. 33 G‘ildiraklarning tuzilishi jang aravasi g‘ildiragining tuzilishiga o‘xshardi: g‘ildiraklarning o‘qlari, to‘g‘ini, kegaylari, gupchaklari quyma edi. 34 Har bir aravaning to‘rt burchagida to‘rtta kashak* bor edi. Kashaklar aravaga mahkamlangan edi. 35 Aravaning yuqorisidan yarim tirsak balandlikda dumaloq halqa bor edi. Aravaning yuqorisidan tirgovuch va yon to‘siqlari birga qo‘yilgan edi. 36 Shunday qilib, Xurom har bir tirgovuchning va yon to‘siqlarning yuzasiga karublar, arslonlar, palma daraxtlari va gulchambarlar suratini o‘ydi. 37 U o‘nta aravaning hammasini bir xil shakl va hajmda yasadi.

38 Xurom o‘nta aravaning ustiga qo‘yish uchun bronzadan o‘nta tog‘ora yasadi. Har bir tog‘oraga 80 ko‘za* suv sig‘ar edi. Har bir tog‘ora ko‘ndalangiga 4 tirsak chiqardi. Har bir aravaga bittadan tog‘ora edi. 39 Xurom aravaning beshtasini Egamiz uyining janub tomoniga, beshtasini shimol tomoniga qo‘ydi. Hovuz shaklini esa uyning janubi–sharq tomoniga o‘rnashtirdi. 40 U qozonlar, kurakchalar va tog‘orachalar ham yasadi.

Egamiz uyi bezaklarining ro‘yxati

Shunday qilib, Xurom shoh Sulaymon uchun Egamizning uyiga oid quyidagi ashyolarni yasab berdi:

41 ikkita ustun,
ustunlarning tepasidagi ikkita doira shaklidagi ustunqosh,
ustunqoshni o‘rab turgan ikkita to‘rsimon bezak,
42 ikkala bezakning yonlarida to‘rt yuzta anor tasviri, ya’ni ustunlar tepasida doira shaklidagi ikkita ustunqoshni qoplab turish uchun har bir to‘rsimon bezakning ikkala chekkasidagi anor suratlari,
43 o‘nta arava, aravaning ustidagi o‘nta tog‘ora,
44 bitta hovuz, hovuz ostidagi o‘n ikki buqa shakli,
45 qozonlar, kuraklar, tog‘orachalar.

Xurom shoh Sulaymon uchun Egamizning uyiga oid ana shu ashyolarni sayqallangan
bronzadan yasab berdi. 46 Shoh bu narsalarni Iordan vodiysi atroflarida — Suxot va
Zoraton orasida loydan yasalgan qoliplarda quydirdi. 47 Buyumlar g‘oyat ko‘pligidan
Sulaymon bronzani o‘lchamasdan ishlataverdi. Shuning uchun ishlatilgan bronzaning
hisobi aniqlanmadi.
48 Sulaymon Egamizning uyi uchun quyidagi hamma buyumlarni ham yasattirdi:

oltindan yasalgan tutatqi qurbongohi,
ustida muqaddas nonlar* turadigan oltin xontaxta,
49 o‘nta toza oltindan ishlangan chiroqpoyalar (bu chiroqpoyalar Eng muqaddas
xonaning oldida bo‘lib, beshtasi janub tomonda, beshtasi shimol tomonda
turardi),
yana oltindan gullar, moychiroqlar, qisqichlar,
50 toza oltindan tog‘oralar, qaychilar, tog‘orachalar, kurakchalar va olovkuraklar,
Eng muqaddas xona eshigining oshiq–moshig‘i, asosiy xonaning eshiklari oshiq–
moshig‘i.

51 Shunday qilib, shoh Sulaymon Egamizning uyiga oid hamma ishlarni bitirdi.
Sulaymon otasi Dovud nazr qilgan narsalarni olib kelib, kumush, oltin va turli
buyumlarni Egamizning uyi xazinasiga qo‘ydi.

8–BOB

Ahd sandig‘i Egamizning uyiga keltiriladi

1 Shundan so‘ng Sulaymon Egamizning Ahd sandig‘ini Dovud qal’asidan* — Siondan
Egamizning uyiga olib kelmoqchi bo‘ldi. Shu maqsadda u Isroil oqsoqollarini, hamma
qabila yo‘lboshchilarini, Isroil xalqi urug‘boshilarini Quddus shahriga chaqirtirdi.
2 Ularning hammasi yettinchi oyda — Yetanim oyida*, Chayla bayrami* paytida shoh
Sulaymonning huzuriga yig‘ilishdi. 3 Isroil oqsoqollarining hammasi kelgach, ruhoniylar
Sandiqni yerdan ko‘tarishdi. 4 Ruhoniylar va levilar, Egamizning Sandig‘i bilan birga,
Uchrashuv chodirini*, Chodirdagi barcha muqaddas buyumlarni Egamizning uyiga olib
kelishdi. 5 Shoh Sulaymon va to‘plangan butun Isroil jamoasi Sandiqning oldida qo‘ylar,
buqalar so‘yib, qurbonlik qilishdi. Qurbonlik qilingan qo‘y va buqalar shu qadar ko‘p
ediki, hisobiga yetib bo‘lmasdi. 6 Ruhoniylar Egamizning Ahd sandig‘ini alohida atalgan
joyga — Eng muqaddas xonaga, karublarning qanotlari ostiga qo‘yishdi. 7 Karublarning
qanotlari Sandiq usti bo‘ylab cho‘zilgan va Sandiq hamda uning xodalarini berkitib
turardi. 8 Xodalar shunchalik uzun ediki, ularning uchi Eng muqaddas xonaning
shundaygina oldidan ko‘rinib turardi, boshqa joydan esa ko‘rinmasdi. Xodalar
bugungacha* ham o‘sha yerda turibdi.
9 Sandiqning ichida ikkita tosh lavhadan boshqa hech narsa yo‘q edi. Isroil xalqi
Misrdan chiqqandan keyin, Egamiz Sinay tog‘ida* ular bilan ahd tuzgan edi. O‘shanda
Muso bu tosh lavhalarni Sandiq ichiga solib qo‘ygan edi.
10 Ruhoniylar Muqaddas xonadan chiqayotganlarida, Egamizning uyi bulut bilan
to‘lib ketdi. 11 Bulut nur sochib, ko‘zni qamashtirardi. Ruhoniylar xizmatni davom
ettirish uchun u yerga kirolmay qoldilar, chunki uy Egamizning ulug‘vorligi bilan

to‘lgandi.
12 Shunda Sulaymon ibodat qildi:
— Ey Egamiz! Sen, zimziyo zulmatda maskan qilaman, degan eding. 13 Mana endi
Senga ajoyib bir uy, abadiy istiqomat qilishing uchun bir maskan barpo qildim.

Shoh Sulaymonning duosi

14 Keyin shoh orqasiga qayrilib, tik turgan jamiki Isroil jamoasini duo qildi. 15 Shoh
dedi:

“Isroil xalqining Xudosi — Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin. U otam Dovudga bergan va’dasini bajardi. 16 Egamiz otamga shunday degan edi*: «Xalqim Isroilni Misrdan olib chiqqan kunimdan beri Men ulug‘lanadigan uyni barpo qilish uchun Isroil qabilalarining birorta shahrini tanlamadim. Men seni, ey Dovud, xalqim Isroil ustidan hukmdor bo‘lgin deb tanladim.»
17 Isroil xalqining Xudosi — Egamizga atab bir uy barpo qilmoq otam Dovudning niyati edi. 18 Lekin Egamiz otam Dovudga shunday deb aytdi: «Modomiki, Menga atab bir uy barpo qilmoqni ko‘nglingga tukkan ekansan, yaxshi qilibsan. 19 Biroq Menga atab o‘sha uyni sen emas, balki sening pushti kamaringdan bino bo‘ladigan o‘g‘ling barpo qiladi.»
20 Egamiz va’da bergan edi, bajo ayladi: otam Dovudning o‘rniga taxtga men chiqdim, Egamiz va’da etganiday, Isroil taxtiga o‘tirdim, Isroil xalqining Xudosi — Egamizga atab bir uy barpo qildim. 21 O‘sha uyda Ahd sandig‘i uchun ham joy tayyorladim. Egamiz ota–bobolarimizni Misr yurtidan olib chiqqandan keyin, ular bilan qilgan ahd lavhasi shu Sandiqning ichida turibdi.”

Sulaymonning ibodati

22 Sulaymon Egamizning qurbongohi oldida, Isroil jamoasi ro‘parasida qo‘llarini
ko‘kka cho‘zganicha dedi:

23 “Ey Isroil xalqining Xudosi — Egamiz! Yer yuzida ham, osmonu falakda ham Senga o‘xshashi yo‘q! Senga butun qalbi bilan bog‘lanib, Sen ko‘rsatgan yo‘ldan yuradigan qullaringga O‘zing ahdingni sodiq saqlaysan. 24 Quling — otam Dovudga Sen O‘z og‘zing bilan bergan va’dalaringni bugun O‘z qo‘ling bilan bajo aylading.
25 Ey Isroil xalqining Xudosi — Egamiz! O‘zingning qulingga — otam Dovudga: «Bolalaring ham senga o‘xshab oldimda o‘ylab qadamini bossalar, sening naslingdan bo‘lgan erkak zoti to abad Isroil taxtida o‘tiradi», deb va’da bergan eding. Endi bergan va’dangni ado et! 26 Ey Isroil xalqining Xudosi! Qulingga — otam Dovudga aytganlaring amalga oshsin, deb iltijo qilaman.
27 Ey Xudo, Sen yer yuzida yasharmiding?! Sen osmonga, hatto falak toqiga ham sig‘massan. Falak toqi oldida men qurgan uy nima bo‘libdi?! 28 Ey Egam Xudo, bugun iltijo bilan qilgan ibodatimni qabul et! Senga yolvorib qilayotgan iltijolarimga javob ber. 29 Sen: «Men o‘sha yerda ulug‘lanay», deb aytgan eding. Ko‘zlaring kechayu kunduz o‘sha joyga — o‘sha uyga qadalib tursin. Men, quling, o‘sha tomonga qarab ibodat qilaman, ibodatlarimni tingla. 30 Isroil xalqi bilan birga o‘sha tomonga qarab qilgan iltijolarimizga quloq tut. Samolardan — O‘z

makoningdan turib quloq sol, eshitgin–u, gunohimizdan oʻt.
31 Kimdir gunohkorlikda ayblansa, oʻsha odam kelib, shu uyingdagi
qurbongohing oldida, aybsizman, deb ont ichsa, 32 ey Egam, samodan turib quloq
sol, qullaringni Oʻzing hukm et. Gunohkorning qilmishini boʻyniga qoʻy, jazosini
ber. Gunohsizning esa haqligini koʻrsat, haq boʻlgani uchun uni ozod qil.
33 Xalqing Isroil Sening oldingda gunoh qilgani uchun yovga magʻlub boʻlsa,
yana qaytib Seni tan olsa, oʻsha uyda Senga yolvorib iltijo qilsa, 34 Sen samodan
turib, ularning iltijolariga quloq sol, gunohlaridan oʻt. Otalariga Oʻzing tomondan
berilgan yurtga ularni qaytar.
35 Ular Senga qarshi gunoh qilganlari uchun osmon berkilib, yomgʻir
yogʻmaganda, ular oʻsha uyga qarab, Seni yana tan olib iltijo qilsalar, Sen ularni
gunohlari uchun jazolaganingda, tavba qilsalar, 36 qullaring Isroil xalqiga
samodan turib quloq sol, ularning gunohidan oʻt. Ularga toʻgʻri yoʻl koʻrsat, toki
oʻsha yoʻldan yursinlar, keyin xalqingga mulk qilib bergan yerga yomgʻir yogʻdir.
37 Yurtda ocharchilik yo oʻlat paydo boʻlsa, garmsel*, zang kasali, chigirtka*,
qurt–qumursqa bossa yoki xalqingni yovlar qamal qilsa, yoxud kulfat, xastalik
ularning boshiga kelsa, 38 har qanday inson yoki xalqing Isroil Senga yolvorib
ibodat qilsa, har kim oʻz yuragidagi dardini aytib, bu uy tomonga qoʻllarini
choʻzsa, 39-40 Sen osmondan — maskaningdan turib quloq sol va ularning
gunohidan oʻt. Har birining tutgan yoʻliga qara, xizmatiga yarasha ber, toki Sen
Oʻzing ota–bobolarimizga bergan yurtda umrlarining oxirigacha Sendan qoʻrqib
yashasinlar. Zotan, jamiki inson bolasining koʻnglidagini yolgʻiz Sen bilasan,
xolos.
41 Xalqing Isroildan boʻlmagan begona odam Seni deb uzoq yurtdan kelib,
42 Sening shuhrating, qudrating va ajoyibotlaring haqida eshitib, oʻsha uyga qarab
ibodat qilsa, 43 Sen makoningdan turib quloq sol. Oʻsha odamning soʻraganini
bajo ayla, toki yer yuzidagi hamma xalqlar Seni bilsin, xalqing Isroil kabi, Sendan
hayiqadigan boʻlsin. Men barpo qilgan shu uy Senga atab qilinganini bilsin.
44 Sen xalqingni gʻanimlariga qarshi jang qilishga yuborganingda, ular Oʻzing
tanlab olgan bu shaharga, Senga atab men qurgan uyga yuz burib, ibodat qilsalar,
45 osmondan turib ularning iltijolarini eshit, bajo ayla.
46 Sening oldingda ular gunoh qilganlarida, chunki gunoh qilmaydigan
odamning oʻzi yoʻq, Sen gʻazablanib, ularni yaqin yoki uzoq yurtlarga asir qilib
olib ketadigan dushmanlarning qoʻliga berganingda, 47 ular gʻanimlari yurtida
asirlikda yurib, esini yigʻib olgach: «Gunoh qildik, shakkoklik qildik, aybdormiz»,
deb tavba qilib, Senga yolvorsalar, 48 gʻanimlar yurtida butun qalbi bilan, jonu dili
bilan Senga qaytsalar, Oʻzing ota–bobolariga bergan yurtga, Oʻzing tanlab olgan
shaharga, Senga atab men qurgan uyga yuz burib, Oʻzingga ibodat qilsalar,
49 samodan — makoningdan turib ularning qilgan iltijolarini eshit, bajo ayla.
50 Xalqing Senga qarshi qancha gunoh qilgan boʻlmasin, Senga qarshi qanchalik
isyon qilgan boʻlmasin, ularni kechir. Xalqingni asir etgan yov koʻnglida shafqat
qoʻzgʻatgin, toki ular xalqingga mehribonlik qilsin. 51 Axir, Isroil Sening xalqing,
Sening ulushingdir. Ularni Misrdan — temir oʻchoq ichidan Oʻzing olib
chiqqansan.
52 Xalqing Senga doimo iltijo qilganda, men, qulingning iltijolarini, xalqing

iltijolarini eshitib, ularga doimo nazaringni solib marhamat qilgin. 53 Zotan, ota–
bobolarimizni Misrdan olib chiqqaningda, quling Muso orqali aytganingday,
ularni O‘zingning ulushing qilib, dunyodagi hamma xalqdan ajratib olding, ey
Egamiz Rabbiy!”

Sulaymonning so‘nggi duosi

54 Sulaymon Egamizning qurbongohi oldida tiz cho‘kib, qo‘llarini ko‘kka cho‘zib,
ibodat qilib bo‘lgandan keyin, o‘rnidan turdi. 55 Sulaymon tik turganicha baland ovoz
bilan Isroil jamoasini duo qildi:

56 “Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin! U va’dasiga ko‘ra, O‘zining xalqi Isroilga
tinchlik–omonlik berdi. U quli Muso orqali yaxshi va’dalar bergan edi, o‘sha
va’dalarning birontasi ham bajarilmay qolmadi. 57 Egamiz Xudo ota–bobolarimiz
bilan bo‘lganiday, biz bilan ham bo‘lsin, bizni tark etmasin, tashlab ketmasin.
58 Egamizning yo‘lidan yurmoq uchun, ota–bobolarimizga buyurgan amr, farmon
va qonun–qoidalarga rioya etmog‘imiz uchun ko‘nglimizni O‘ziga rom qilsin.
59 Egamizning oldida iltijo qilarkanman, shu iltijolarimga U quloq tutib, bu
qulining va O‘zining xalqi Isroilning kundalik ehtiyojlarini bajo aylasin, 60 toki
dunyodagi jamiki qavmlar Egamiz — Xudo ekanini bilib qo‘ysin. Undan boshqasi
yo‘q. 61 Hozirgiday, Uning farmonlari bo‘yicha yurmoq uchun, amrlariga rioya
etmoq uchun chin yurakdan Egamiz Xudoga bog‘laninglar.”

Sulaymon qurbonliklar keltiradi

62 Shundan keyin shoh va butun Isroil xalqi Egamizga atab qurbonlik qildilar.
63 Sulaymon 22.000 buqani, 120.000 qo‘yni Egamizga atab tinchlik qurbonligi qildi. Shu
tariqa shoh va butun Isroil xalqi Ma’badni Egamizga bag‘ishladilar. 64 Shu kuni shoh
Egamizning uyi oldidagi hovli o‘rtasini ham muqaddas qildi. So‘ng o‘sha yerda
kuydiriladigan qurbonliklar, don nazrlari va tinchlik qurbonliklarining yog‘ini nazr qildi,
chunki bularning hammasi Egamizning huzuridagi bronza qurbongoh ustiga sig‘magan
edi. 65 Keyin Sulaymon va u bilan birga katta jamoa — Levo–Xomatdan* tortib, Misr
chegarasidagi irmoqqa* qadar yerlarda yashaydigan butun Isroil xalqi Egamiz Xudo
oldida Chayla bayramini* nishonlashdi. Bayram o‘n to‘rt kun davom etdi. Ular yetti kun
qurbongohning Xudoga bag‘ishlanishini nishonlashdi, yetti kun Chayla bayramini
qilishdi. 66 Chayla bayramidan keyin* Sulaymon xalqqa ruxsat berdi, xalq shohni duo
qildi. Shundan keyin Egamiz O‘z quli Dovudga va Isroil xalqiga ko‘rsatgan muruvvati
tufayli hammaning ko‘ngli shodlikka to‘lib, uylariga qaytib ketdilar.

9–BOB

Egamiz yana Sulaymonga zohir bo‘ladi

1 Sulaymon Egamizning uyini ham, o‘zining saroyini ham qurib bo‘ldi. Mo‘ljallangan
hamma yumushlarni tamom qildi. 2 Shundan keyin Egamiz Sulaymonga, ilgari Givonda
zohir bo‘lganiday*, yana zohir bo‘ldi. 3 Egamiz unga shu so‘zlarini ayon qildi:

“Menga qilgan iltijolaringni eshitdim. Sen qurgan va O‘zim ulug‘lanadigan
uyni muqaddas qildim. Ko‘zlarim, ko‘nglim doimo o‘sha yerda bo‘ladi.
4 Sen ham Mening oldimda, otang Dovud kabi, sofdil va to‘g‘ri bo‘lib yursang,

Men amr etgan hamma farmonlarimni ijro etsang, qonun–qoidalarimni mahkam
tutsang, [5] Isroil ustidan shohlik taxtingni abadiy mustahkam qilaman. Otang
Dovudga ham: «Sening naslingdan bo‘lgan erkak zoti to abad Isroil taxtida
o‘tiradi», deb va’da bergan edim*.
[6] Bordi–yu, sen ham, sening nasling ham Men ko‘rsatgan yo‘ldan qaytsangiz,
sizlarga bergan amr va farmonlarimga rioya qilmasangiz, borib boshqa
xudolarga xizmat qilsangiz, ularga topinsangiz, [7] Isroil xalqini O‘zim bergan
yurtdan uloqtirib tashlayman. Men muqaddas qilgan, O‘zim ulug‘lanadigan uyni
tark etaman. Ana o‘shanda Isroil xalqi hammaning og‘zida duv–duv gap bo‘ladi,
hamma xalqlar ularni masxara qiladi. [8] Hozir ajoyib bo‘lib turgan uyning yonidan
o‘tganlar buning ayanchli ahvolini ko‘rganda, dahshatga tushib: «Nimaga
ularning Egasi bu yurtni va bu uyni mana shu ahvolga soldi ekan–a?» deb qotib
qoladi. [9] So‘ng yana o‘zlari shunday xulosa chiqaradilar: «Eha, ular ota–bobolarini
Misr yurtidan olib chiqqan o‘zlarining Egasi Xudodan yuz o‘girdilar–ku! Boshqa
xudolarga ergashib, o‘sha xudolarga topinib, xizmat qildilar–ku! Qilmishlariga
yarasha o‘zlarining Egasi ularning boshiga shu ko‘rgiliklarni solibdi–da.»”

Sulaymonning shoh Xiram bilan tuzgan bitimi

[10] Sulaymon ikkala uyni — Egamizning uyini va o‘z saroyini yigirma yilda bitirgan
edi. [11] Tir shohi Xiram Sulaymonning ehtiyojiga ko‘ra, sadr yog‘ochi, sarv yog‘ochi, oltin
yetkazib bergan edi. Shoh Sulaymon Xiramga bu xizmatlari uchun Jalila hududidagi
yigirmata shaharni berdi. [12] Xiram: “Sulaymon bergan shaharlarni ko‘ray–chi”, deb
Tirdan yo‘lga chiqdi, lekin u shaharlar Xiramga ma’qul kelmadi.
[13] — Do‘stim, menga bergan shaharlaring bori–yo‘g‘i shumi?! — dedi Xiram
Sulaymonga. Xiram o‘sha yerlarga Kavul* deb nom berdi va bugunga qadar shu nom
bilan yuritiladi. [14] Xiram esa shoh Sulaymonga 250 pud* oltin yuborgan edi.

Sulaymonning yutuqlari

[15] Shoh Sulaymon majburlab olgan qarollarni chaqirtirib, Egamizning uyini, o‘zining
saroyini barpo ettirgan edi. Shuningdek, Quddusning sharq tomonidagi Milloni*
mustahkam qildirgan va shahar devorini qurdirgan edi. Xazor, Magido‘ va Gezer
shaharlarini mustahkamlagan edi. [16] Misr fir’avni Gezerga bostirib kelib, shaharni qo‘lga
olgan va o‘t qo‘ygandi. Shu yerda istiqomat qilayotgan Kan’on aholisini qirib tashlab,
shaharni o‘zining qizi — Sulaymonning xotiniga sep qilib bergandi. [17] Shundan so‘ng
Sulaymon Gezer shahrini, Pastki Bayt–Xo‘ronni, [18] Baalatni, Yahudoning cho‘lidagi
Tamarni*, [19] o‘zining hamma ombor shaharlarini, jang aravalari saqlanadigan
shaharlarni, otliqlari turadigan shaharlarini qaytadan tuzatib mustahkamladi. Bundan
tashqari, Quddusda, Lubnonda, shohlikning hamma burchaklarida nima istasa, barpo
qildi.
[20] Shu o‘lkada qolib ketgan Amor, Pariz, Xiv, Xet va Yobus xalqlari Isroil xalqidan
emasdi. [21] Isroil xalqi ularning bu yurtda qolib ketgan avlodlarini tamomila qirib
bitirolmagan edi. Sulaymon o‘sha qolib ketganlarini qarol qilib oldi. Ular bugungacha*
bor. [22] Lekin Sulaymon Isroil xalqidan birortasini qul qilmadi. Aksincha, ularni shohning
sipohlari, a’yonlari, akobirlari*, lashkarboshilari, jang aravalarining qo‘mondonlari va
suvorilarining qo‘mondonlari lavozimiga tayinladi.
[23] Sulaymonning ishboshilari 550 kishi bo‘lib, ular ishlayotgan odamlar ustidan

nazoratchi edilar.

24 Fir’avnning qizi Dovud qal’asidan o‘ziga atalgan saroyga ko‘chib o‘tdi. Bu saroyni
Sulaymon unga atab barpo qilgan edi. Shundan keyin Sulaymon Quddusning sharq
tomonidagi Milloni* mustahkam qildirgandi.

25 Xullas, Sulaymon Egamizning uyini bitkazdi. U Egamizga atab qurgan
qurbongohda yiliga uch marta kuydiriladigan qurbonliklar va tinchlik qurbonliklari
qilar, tutatqi tutatardi.

26 Shoh Sulaymon Edom yurtida, Qizil dengiz* bo‘yidagi Elet shahri yonida
joylashgan Ezyo‘n–Geber shahrida kemalar yasadi. 27 Xiram o‘z tajribali dengizchilarini
Sulaymonning odamlari bilan birga kemalarda jo‘natdi. 28 Ular Ofir yurtiga* borib, u
yerdan 900 pud* oltin olib, shoh Sulaymonga keltirib berdilar.

10–BOB

Shava malikasining tashrifi

1 Shava* malikasi Sulaymonning dong‘ini, Egamizga atab qilgan ishlarini eshitgach,
Sulaymonning huzuriga keldi. U Sulaymonga topishmoqlar aytib sinab ko‘rmoqchi edi.
2 Malika Quddusga juda ko‘p miqdorda oltin va qimmatbaho toshlar, xushbo‘y ziravorlar
yuklangan katta karvonni boshlab keldi.

Malika Sulaymonning huzuriga kirgach, ko‘nglida nima bo‘lsa, hammasini unga
aytdi. 3 Sulaymon malikaning hamma savollariga javob berdi, malikaning bironta
savoliga javob berishda qiynalmadi. 4 Shava malikasi Sulaymonning donoligini, u qurgan
saroyni, 5 dasturxonidagi noz–ne’matlarni, xizmatkorlarining yashash sharoitlarini, shoh
soqiylariyu* bakovullarini* hamda ularning xizmat liboslarini, Egamizning uyida shoh
Sulaymon kuydirib, nazr qilgan qurbonliklarni ko‘rdi. Malika g‘oyat hayratlanib,
6 shohga dedi:

— Sizning ishlaringiz, donoligingiz haqida yurtimda eshitganlarim to‘g‘ri ekan.
7 Kelib o‘z ko‘zlarim bilan ko‘rmagunimcha, gap–so‘zlarga ishonmagan edim. Menga
hatto yarmini ham aytishmagan ekan. Men eshitgandan ham ko‘ra, donoroq ekansiz,
boyligingiz ham juda ko‘p ekan. 8 Naqadar baxtiyordir odamlaringiz! Omadlidir
xizmatkorlaringiz! Ular doimo huzuringizda bo‘lib, donoligingizdan bahra olishar.
9 Sizdan mamnun bo‘lib, Isroil taxti uzra o‘tqazgan Egangiz Xudoga hamdu sanolar
bo‘lsin. U Isroilni to abad sevgani uchun adolat va to‘g‘rilik bilan hukm etsin deb, sizni
shoh qilgan ekan.

10 Malika Sulaymonga 250 pud* oltin, behisob xushbo‘y ziravorlar, qimmatbaho
toshlar hadya qildi. Hech kim shoh Sulaymonga oldin ham, keyin ham Shava malikasi
berganchalik xushbo‘y ziravorlar hadya qilmagan edi.

11 Xiramning Ofirdan oltin olib kelgan kemalari juda ko‘p sandal daraxti yog‘ochlari
va qimmatbaho toshlar ham keltirgandi. 12 Shoh o‘sha yog‘ochlardan Egamizning uyi
uchun ham, shoh saroyi uchun ham jihozlar, musiqachilar uchun lira va arfalar
yasattirgandi. Bugungacha bunaqa sandal daraxti yog‘ochlari keltirilmagan va hech kim
ko‘rmagan edi.

13 Shoh Sulaymon Shava malikasiga istaganini va so‘raganining hammasini muhayyo
qildi. Bundan tashqari, malikaga ko‘ngildan chiqarib hadyalar in’om etdi. Shundan keyin
malika hamma odamlarini ergashtirib, o‘z yurtiga jo‘nab ketdi.

Shoh Sulaymonning boyligi

14 Har yili Sulaymonga kelib turadigan oltinning og‘irligi 1425 pud* edi.
15 Odamlarning oldi–sotdisidan, savdogarlar tijoratidan olinadigan soliq va butun Arab
shohlaridan, Isroildagi viloyat hokimlaridan olinadigan o‘lpon bunga kirmasdi.
16 Shoh Sulaymon oltindan ikki yuzta katta qalqon yasattirdi. Har bir qalqonni
yasashga yarim pud* oltin sarf bo‘ldi. 17 Yana oltindan uch yuzta kichik qalqon ham
yasattirdi. Har bir qalqon uchun 400 misqol* oltin sarf bo‘ldi. Shoh bu qalqonlarni
“Lubnon o‘rmoni” degan uyiga* qo‘ydi.
18 U yana fil suyagidan katta taxt yasatib, uni toza oltin bilan qoplatdi. 19 Taxtning
oltita pog‘onasi bo‘lib, suyanchig‘ining yuqorisi orqaga qayrilgan, o‘rindig‘ining ikki
tomonida tirsagi bor edi. Tirsaklarning yonida ikkita sher tasviri turardi. 20 Har bir
pog‘onaning ikki chekkasida ham bittadan sher tasviri bo‘lib, taxtning olti pog‘onasida
jami o‘n ikkita sher tasviri bor edi. Bunday taxt boshqa birorta shohlikda bo‘lmagan edi.
21 Shoh Sulaymonning ichimlik ichadigan hamma idishlari oltindan, “Lubnon
o‘rmoni” degan uyidagi hamma idishlar ham toza oltindan bo‘lib, birorta ham buyum
kumushdan yasalmagan edi. Sulaymon davrida kumush arzimas narsa bo‘lib qolgandi.
22 Dengizda, Xiramning kemalari qatorida, Sulaymonning ham savdo kemalari bo‘lib, bu
kemalar har uch yilda oltin, kumush, fil suyagi, turli–tuman maymunlar* olib qaytardi.
23 Shunday qilib, Sulaymon boylikda ham, donolikda ham yer yuzidagi hamma
shohlardan o‘tib ketdi. 24 Sulaymonga Xudo bergan donolikni eshitmoq uchun butun
dunyo uning oldiga kelgani oshiqardi. 25 Kelganlarning har biri kumush va oltin idishlar,
kiyim, qurol–aslaha, xushbo‘y ziravorlar, ot va xachirlar hadya qilib olib kelar edi.
Bunday hol yillab davom etardi.
26 Sulaymon jang aravalari va otlarni to‘pladi. Uning 1400 ta jang aravasi va
12.000 ta oti bor edi. Sulaymon bularning bir qismini jang aravalari saqlanadigan
shaharlarga va bir qismini Quddusga — o‘zining yoniga joylashtirdi. 27 Uning
hukmronligi davrida Quddusda kumush ko‘chadagi toshday ko‘p edi. Sadr yog‘ochlari
ham xuddi Yahudo qir etaklarida o‘sadigan oddiy shikamora–anjir daraxtiday* serob
edi. 28 Shohning savdogarlari Misrdan* va Quvedan Sulaymon uchun otlar olib
kelishardi. Ular otlarni Quvedan sotib olishardi. 29 Misrdan keltirilgan har bir jang
aravasi uchun 600 kumush tanga*, har bir ot uchun 150 kumush tanga* to‘lashardi.
So‘ng bularni barcha Xet shohlariga va Oram shohlariga sotishardi.

11–BOB

Sulaymon Xudodan yuz o‘giradi

1 Shoh Sulaymon fir’avnning qizidan boshqa yana Mo‘ablik, Ommonlik, Edomlik,
Sidonlik va Xet xalqidan ko‘pgina ajnabiy ayollarga ko‘ngil qo‘ydi. 2 Egamiz Isroil xalqiga
bu xalqlar haqida gapirib, shunday degan edi: “Ularga qiz bermanglar ham, qiz
olmanglar ham. Aks holda, ular ko‘nglingizni o‘z xudolariga rom qilib qo‘yadilar.”
Sulaymon esa o‘sha ayollarga shahvat bilan yopishdi. 3 Uning yetti yuzta xotini shohlar
qizlaridan bo‘lib, uch yuzta kanizagi* ham bor edi. Xotinlari sababli shoh begona
xudolarga yuz burdi. 4 Oxiri shunday bo‘ldiki, keksaygan chog‘ida shohning ko‘ngli
xotinlari tufayli begona xudolarga moyil bo‘ldi. Dovud o‘zining Egasi Xudoga chin
yurakdan bog‘langan edi, Sulaymon esa otasiga o‘xshamadi. 5 Shunday qilib, Sulaymon

Sidon aholisining xudosi Ashtaret, Ommon xalqining makruh xudosi Mo‘laxga* sajda
qila boshladi. 6 Sulaymon Egamiz oldida qabihliklar qildi. Otasi Dovud Egamizga sodiq
qolgan bo‘lsa, Sulaymon unday qilmadi. 7 Quddusning sharqidagi tepalikda Mo‘ab
xalqining makruh xudosi Xamo‘shga va Ommon xalqining makruh xudosi Mo‘laxga
sajdagoh qurdi. 8 Hamma ajnabiy xotinlari o‘z xudolariga tutatqi tutatib, qurbonliklar
keltirishlari uchun shunday qildi.

9-10 Isroil xalqining Xudosi — Egamiz ikki marta Sulaymonga zohir bo‘lgan edi.
Shunga qaramay Sulaymon Egamizdan yuz o‘girdi. Egamizning, begona xudolarga
ergashma degan amrini bajo qilmadi. Shuning uchun Egamiz Sulaymondan qattiq
g‘azablandi. 11 Egamiz Sulaymonga dedi:

— Modomiki, Sen bilan qilgan ahdimni va senga amr qilgan farmonlarimni bila turib
bajarmagan ekansan, Men endi shohlikni sendan tortib olaman va tobe odamlaringdan
biriga beraman. 12 Lekin otang Dovudning haqi–hurmati uchun bu ishni sen
hayotligingda qilmayman. Shohlikni o‘g‘lingning qo‘lidan tortib olaman. 13 Shunda ham
shohlikning hammasini tortib olmayman, qulim Dovudning haqi–hurmati uchun, O‘zim
tanlab olgan Quddus haqi–hurmati uchun bitta qabilani* sening o‘g‘lingga qoldiraman.

Sulaymonning dushmanlari

14 Egamiz Sulaymonga Edomlik Hadadni dushman qilib qo‘ydi. U Edom shohlari
naslidan edi. 15 Ancha oldin Dovud Edomliklar bilan urush qilgan edi. O‘sha jangda Isroil
xalqidan halok bo‘lganlarni dafn qilish uchun lashkarboshi Yo‘ab Edomga bordi. 16 Isroil
lashkari va Yo‘ab Edomdagi erkak zotini bitta qo‘ymay qirib tashlagunga qadar, olti oy u
yerda qolgan edilar. 17 Shunda Hadadga va uning otasiga xizmat qilgan ba’zi Edomliklar
Misrga qochib ketishgan edi. O‘sha paytda Hadad kichkina bola edi. 18 Ular Midiyondan
jo‘nab, Poronga yetib kelishdi. Porondan ham odamlar ularga qo‘shildilar. Keyin Misrga
— Misr shohi fir’avn huzuriga yetib kelishdi. Fir’avn Hadadga uy berdi, oziq–ovqat tayin
etdi, yer berdi. 19 Hadad fir’avnning hurmatini qozondi. Fir’avn Hadadga qayinsinglisini
— malika Taxpanasning singlisini nikohlab berdi. 20 Xotini Hadadga o‘g‘li Ganuvatni
tug‘ib berdi. Taxpanas bolani fir’avn xonadonida tarbiya qila boshladi. Ganuvat fir’avn
xonadonida uning o‘g‘illari qatorida ulg‘aydi. 21 Hadad Misrda: “Dovud olamdan o‘tibdi,
lashkarboshi Yo‘ab ham vafot etibdi” degan xabarni eshitgach, fir’avnga dedi:

— Menga ijozat bersalar, o‘z yurtimga ketsam.

22 — Yurtimga ketaman, deysan, nima, mening yonimda biror narsaga muhtojlik
sezyapsanmi? — deb so‘radi fir’avn.

— Yo‘q, aslo, lekin baribir, menga ijozat bersalar, — deb turib oldi Hadad.

23 Xudo Razo‘nni ham Sulaymonga dushman qilib qo‘ydi. Razo‘n Elyodax deganning
o‘g‘li edi. Razo‘n o‘z xo‘jayini, Zo‘vo shohi Hadadzarning dastidan qochib ketgan edi.
24 Dovud Zo‘voliklarni qirgach*, Razo‘n ham atrofiga bir bosqinchi guruhni to‘plab, o‘sha
guruhga bosh bo‘ldi. So‘ng ular Damashqqa borib, u yerda joylashdilar. Damashqda o‘z
hukmronligini o‘rnatdilar. 25 U ham Sulaymon hayot paytida Isroilga dushman bo‘lib
qoldi. Razo‘n Oramda shoh bo‘lib turar ekan, Hadad kabi, Isroilga nafrat bilan qarab,
doimo dushmanlik qilib keldi.

Yeribom Sulaymonga qarshi isyon ko‘taradi

26 Yana Sulaymonning a’yonlaridan biri — Efrayim qabilasidan bo‘lgan Yeribom
degani ham shohga qarshi bosh ko‘tardi. U Zarido shahridan* Nabat deganning o‘g‘li edi.

Yeribomning onasi beva ayol bo‘lib, oti Zaruva edi. 27 Yeribom Sulaymonga qarshi bosh
ko‘targanining sababi quyidagicha edi: Sulaymon Quddusning sharq tomonidagi
Milloni* mustahkamlab, otasi Dovud qal’asining devorlarini tuzattirayotganda,
28 qurilishda g‘ayrat bilan ishlayotgan Yeribomga nazari tushdi. Yeribom juda ham
qobiliyatli yigit bo‘lgani uchun Sulaymon uni Yusuf qabilasidan olingan* barcha
qarollarga nazoratchi qilib qo‘ydi.
29 Bir kuni Yeribom Quddusdan tashqariga chiqqan edi, Shilo‘lik Oxiyo payg‘ambar
bilan yo‘lda uchrashib qoldi. Oxiyo payg‘ambar yangi kiyimlar kiyib olgan ekan. U yerda
ikkovidan boshqa hech kim yo‘q edi. 30 Shu payt Oxiyo ustidagi yangi kiyimlarini yechdi–
yu, yirtib o‘n ikki bo‘lakka bo‘lib tashladi. 31 Keyin Yeribomga dedi:
— O‘zingga o‘n bo‘lagini ol. Isroil xalqining Xudosi — Egamiz ham shunday
aytmoqda: “Men Sulaymonning qo‘lidan shohlikni tortib olaman va o‘nta qabilani*
senga beraman. 32 Qulim Dovudning haqi–hurmati uchun, Isroilning hamma qabilalari
orasidan O‘zim tanlab olgan Quddus shahri haqi–hurmati uchun bitta qabila*
Sulaymonniki bo‘ladi. 33 Sulaymon* Mendan yuz o‘girib, Sidonning xudosi Ashtaretga,
Mo‘abning xudosi Xamo‘shga, Ommonning xudosi Mo‘laxga sajda qila boshladi. Otasi
Dovudga o‘xshamadi, oldimda to‘g‘ri ishlar qilmadi, farmonlarimga va qonun–
qoidalarimga rioya qilmadi, yo‘llarimdan yurmadi. 34 Ammo shohlikni undan tamomila
tortib olmayman. Amr va farmonlarimga rioya qilgan va o‘zim tanlab olgan qulim
Dovudning haqi–hurmati uchun Sulaymonni umrining oxirigacha shoh qilaman.
35 Shohlikni esa uning o‘g‘lidan tortib olib, o‘nta qabilani senga beraman. 36 Men o‘sha
yerda ulug‘lanay deb, O‘zim uchun Quddus shahrini tanlaganman. Qulim Dovudning
chirog‘i Quddusda hech qachon o‘chmasin deb, Sulaymonning o‘g‘liga bitta qabilani
beraman. 37 Men seni Isroil* shohi qilaman, ko‘ngling qayerni istasa, o‘sha yerda shohlik
qilaverasan. 38 Agar qulim Dovudga o‘xshab aytganlarimga itoat qilsang — yo‘llarimdan
yursang, oldimda to‘g‘ri ishlar qilsang, farmon va amrlarimga rioya qilsang, Men sen
bilan bo‘laman. Isroilni senga berib, Dovudga qilganimday, xonadoning hukmronligini
o‘zingdan keyin ham davom ettiraman. 39 Sulaymonning shu qilmishlari evaziga
Dovudning naslini tahqirlayman, lekin to abad emas.”
40 Sulaymon Yeribomni o‘ldirmoqchi bo‘ldi. Yeribom esa Misrga — Misr shohi
Shishaxning yoniga qochib ketdi. U Sulaymon vafot etguncha Misrda qoldi.

Sulaymonning o‘limi

41 Sulaymonning boshqa ishlari, butun faoliyati, uning donishmandligi haqida
“Sulaymonning ishlari” kitobida yozib qoldirilgan. 42 Sulaymon Quddusda butun Isroil
ustidan hukmdor edi. Uning hukmronligi qirq yil davom etdi. 43 Sulaymon olamdan o‘tdi.
U otasi Dovud qal’asida, ota–bobolari yoniga dafn qilindi. Uning o‘rniga o‘g‘li Raxabom
shoh bo‘ldi.

12–BOB

Shimoldagi qabilalar isyon ko‘tarishadi

1 Raxabom Shakam shahriga* ketdi. Jamiki Isroil* xalqi ham, Raxabomni shoh qilib
ko‘taramiz deb, Shakamga kelishdi. 2 Nabat o‘g‘li Yeribom bu haqda eshitib, Misrdan
qaytdi*. U Sulaymonning dastidan Misrga qochib ketganicha, hanuz o‘sha yerda edi.
3 Isroil xalqi odam yuborib, uni chaqirtirib keldi. So‘ng Yeribom bilan barcha Isroil

jamoasi Raxabom huzuriga kelib, unga shu gapni aytishdi:
4 — Otangiz bizga og‘ir bo‘yinturuq solib, og‘ir mehnat qilishga bizni majburlagan
edi. Endi siz mehnatimizni yengillatib, bizni bo‘yinturuqdan xalos qiling. O‘shanda biz
sizga itoat etamiz.
5 — Hozir qaytib ketaveringlar, — dedi Raxabom kelganlarga. — Uch kundan keyin
yana huzurimga kelinglar.
Shunday qilib, xalq qaytib ketdi.
6 Shoh Raxabomning otasi Sulaymon hayotligi davrida oqsoqollar har doim uning
oldida hoziru nozir edilar. Shoh o‘sha oqsoqollarga maslahat soldi.
— Sizlar nima deysizlar, bu xalqqa nima deb javob bersam bo‘ladi?
7 Oqsoqollar shohga shunday deb maslahat berishdi:
— Agar siz bu xalqqa bugun qul bo‘lib xizmat qilsangiz, ularga javob berganingizda,
yaxshi so‘zingizni ayamasangiz, ular sizga bir umr xizmat qiladilar.
8 Lekin shoh oqsoqollarning maslahatlarini rad qildi. Birga o‘sgan va o‘ziga xizmat
qilayotgan yosh yigitlar bilan maslahatlashdi. 9 Shoh o‘sha yigitlarga dedi:
— Bu xalq menga: “Otangiz bizga solgan og‘ir bo‘yinturuqdan endi bizni siz xalos
qiling”, deyapti. Ularga nima deb javob berayin? Sizlar qanday maslahat berasizlar?
10 Raxabom bilan birga o‘sib–ulg‘aygan yosh yigitlar unga shunday maslahat
berishdi:
— Arz qilgan o‘sha xalqqa shunday deb ayt: “Mening jimjilog‘im otamning belidan
ham yo‘g‘on. 11 Otam sizlarga og‘ir bo‘yinturuq solgan edi, endi men undan ham
battarrog‘ini qilaman. Otam sizlarni qamchi bilan jazolagan ekan, men esa chayonlarga
chaqtirib, jazolayman.”
12 Raxabom Yeribomga va xalqqa: “Uchinchi kuni huzurimga kelinglar”, deb aytgani
uchun, xalq aytilgan paytda shoh Raxabomning huzuriga keldi. 13-14 Shoh oqsoqollarning
bergan maslahatlarini pisand qilmay, yosh yigitlarning gapiga kirib, xalqqa keskin javob
berdi:
— Otam sizlarga og‘ir bo‘yinturuq solgan edi, endi men undan ham battarrog‘ini
qilaman. Otam sizlarni qamchi bilan urib jazolagan ekan, men esa chayonlarga chaqtirib
jazolayman.
15 Shunday qilib, shoh xalqqa quloq solmadi. Egamizning Shilo‘lik Oxiyo orqali Nabat
o‘g‘li Yeribomga bergan so‘zi* bajo bo‘lishi uchun Xudo bu voqeani shunday
rejalashtirgan edi. 16 Isroil xalqi qarasaki, shoh gapga quloq solmayapti. Shundan keyin
xalq unga shunday xitob qildi:

> “Essay o‘g‘li Dovudning bizga o‘tkazib qo‘ygan joyi yo‘q,
> Bizning ham undan qarzimiz yo‘q!
> Ey Isroil xalqi, hamma o‘z uyiga qaytsin!
> Ey Dovud, endi o‘z ko‘machingga o‘zing kul tortaver!”

Shunday qilib, Isroil xalqi uylariga tarqalib ketdi. 17 Raxabom faqat Yahudo
shaharlarida yashaydigan Isroil xalqi ustidangina hukmronlik qiladigan bo‘lib qoldi.
18 Shoh Raxabom qarollar boshlig‘i Odoniramni* Isroil xalqi oldiga yuborgan edi, Isroil
xalqi uni toshbo‘ron qilib o‘ldirdi. Bu xabarni shoh Raxabom eshitdi–yu, shosha–pisha
jang aravasiga minib Quddusga qochdi. 19 Isroil xalqi o‘sha kundan boshlab Dovud

xonadonidan yuz o‘girdi.

20 Isroil* xalqi: “Yeribom qaytib kelibdi” degan xabarni eshitishdi–yu, odam yuborib,
uni o‘zlarining huzuriga chaqirtirib kelishdi. Isroil xalqi Yeribomni butun Isroilga shoh
qildi. Dovud xonadoniga sodiq bo‘lgan faqat Yahudo qabilasi qoldi, boshqa hech kim bu
xonadonga ergashmadi.

Shamayoning bashorati

21 Sulaymon o‘g‘li Raxabom Quddusga kelib, Yahudo va Benyamin qabilalaridan
180.000 odamni sipohlikka tanlab oldi. “Shohlikni qaytarib olaman” degan maqsadda
ularni Isroil xalqiga qarshi jang qilish uchun tayyorladi. 22 Lekin o‘shanda Shamayo
payg‘ambarga Xudoning quyidagi so‘zlari ayon bo‘ldi: 23 “Yahudo shohi Sulaymon o‘g‘li
Raxabomga hamda butun Yahudo va Benyamin qabilasiga, bu yerdagi boshqa xalqlarga
shu gaplarni yetkaz: 24 «Egamiz shunday aytmoqda: qarindoshlaringiz Isroil xalqiga
qarshi urush boshlamanglar! Har kim o‘z uyiga qaytsin! Chunki bu ishlar hammasi
Mendan bo‘ldi.»”

Ular Egamizning amriga itoat etib, uylariga qaytib ketdilar.

Yeribom Xudodan yuz o‘giradi

25 Yeribom Efrayim qirlaridagi Shakam shahrini mustahkam qilib, o‘sha yerda
o‘rnashdi. U yerdan Paniyolga* ketib, u shaharni ham mustahkam qildi. 26 Keyin
Yeribom o‘ziga o‘zi aytdi: “Shohlik yana Dovud xonadoniga qaytib qolishi mumkin.
27 Agar bu xalq Egamizning uyiga qurbonlik qilish uchun Quddusga boraversa, u paytda
xalqning ko‘ngli yana o‘zlarining hukmdori Yahudo shohi Raxabomga chopadi, meni esa
o‘ldiradilar.”

28 Shundan so‘ng shoh Yeribom maslahatchilari bilan kengashib, ikki oltin buzoq
yasadi va xalqqa dedi:

— Ey Isroil, Quddusga borib yurishingizga hojat yo‘q! Mana, sizlarni Misrdan olib
chiqqan xudolaringiz!*

29 Yeribom oltin buzoqlarning birini Baytil shahriga, ikkinchisini Dan shahriga*
o‘rnashtirdi. 30 Xalq oltin buzoqlarga topinmoq uchun Baytilga va Danga borardi*. Bu
narsalar esa hammani gunohga botirdi.

31 Yeribom, bundan tashqari, begona xudolarga atab sajdagohlar* qurdirdi. Levi
qabilasidan bo‘lmagan xalqdan ruhoniylar tayinladi.

Baytildagi qurbongoh

32-33 Yeribom Isroil xalqi uchun Baytilda nishonlanadigan bir bayram tayin qildi, bu
bayram Yahudoda nishonlanadigan bayramga* o‘xshash edi. Bu bayramning sanasini
Yeribom o‘zicha sakkizinchi oyning* o‘n beshinchi kuniga belgiladi. O‘zi barpo qilgan
sajdagohlarda xizmat qiladigan ruhoniylarni tayinladi. O‘zi yasagan qurbongohda o‘sha
bayram kuni oltin buzoqlariga atab qurbonliklar keltirdi.

13–BOB

1 Yeribom qurbongohning yonida qurbonlik kuydirmoqchi bo‘lib turgan paytda, bir
payg‘ambar, Egamizning amriga ko‘ra, Yahudodan Baytilga keldi. 2 Payg‘ambar
Egamizning amri bilan qurbongohga nido qildi:

— Qurbongoh, ey qurbongoh! Egamiz shunday aytar: “Dovud xonadonida bir o‘g‘il

farzand dunyoga kelar, Uning ismi Yo‘shiyo* bo‘lar. Sajdagohlarda qurbonlik kuydiradigan ruhoniylarni sening ustingda qurbon qilar. Sening ustingda inson suyaklarini yoqar.”

3 Payg‘ambar o‘sha kuniyoq buning alomati to‘g‘risida aytdi:

— Egamiz aytgan alomat quyidagicha bo‘ladi: qurbongoh yorilib ketar, ustidagi kul to‘kilar.

4 Payg‘ambarning Baytildagi qurbongohga aytgan bu so‘zlarini Yeribom eshitgach, qurbongohdan unga tomon qo‘lini uzatib: “Ushlanglar uni!” — dedi. Yeribomning payg‘ambarga qarshi cho‘zilgan qo‘li esa qurib, yog‘ochday qotib qoldi. Uning qo‘li bukilmaydigan bo‘lib qoldi. 5 Egamizning payg‘ambar orqali aytgan alomati bajo bo‘ldi: qurbongoh yorilib, ustidagi kul to‘kilib ketdi. 6 Shunda shoh payg‘ambarga dedi:

— Iltijo qilaman, Egangiz Xudoga men uchun yolvorib, ibodat qiling, toki qo‘lim avvalgi holiga kelsin.

Payg‘ambar Egamizga ibodat qilgan edi, shohning qo‘li avvalgi holiga kelib, bukiladigan bo‘ldi. 7 Shoh payg‘ambarga yana aytdi:

— Men bilan yur uyimga, tamaddi qilib ol, senga hadyalar beray.

8 Payg‘ambar shohga dedi:

— Boyligingning yarmini bersang ham, sen bilan bormayman, bu yerda non ham yemayman, suv ham ichmayman. 9 Egamiz menga: “Non yemaysan, suv ichmaysan, borgan yo‘lingdan qaytmaysan”, deb amr bergan.

10 Shundan keyin payg‘ambar Baytilga kelgan yo‘lidan qaytmay, boshqa yo‘ldan ketdi.

Baytillik keksa payg‘ambar

11 Baytilda keksa bir payg‘ambar yashardi. Uning o‘g‘illari kelib, Yahudolik payg‘ambarning shu kuni Baytilda qilgan ishlari haqida otalariga aytib berdilar. Payg‘ambarning shohga aytgan so‘zlarini ham otalariga bayon qildilar. 12 Otasi o‘g‘illaridan: “O‘sha odam qaysi yo‘ldan ketdi?” — deb so‘radi.

Yahudodan kelgan payg‘ambarning qaysi yo‘ldan ketganini unga o‘g‘illari ko‘rsatdilar. 13 Shunda keksa payg‘ambar o‘g‘illariga: “Eshagimni egarlanglar!” — dedi. O‘g‘illari payg‘ambarning eshagini egarlab berdilar, u eshagiga minib jo‘nadi.

14 Keksa payg‘ambar Yahudolik payg‘ambarning izidan ketdi va nihoyat uni topdi. Yahudolik payg‘ambar eman daraxti ostida o‘tirgan ekan. Keksa payg‘ambar undan:

— Yahudodan kelgan payg‘ambar senmisan? — deb so‘radi.

— Ha, menman, — javob berdi u. 15 Keksa payg‘ambar unga:

— Men bilan yur uyimga, tamaddi qilib ol, — dedi. 16 U esa keksa payg‘ambarga:

— Sen bilan birga qaytib borolmayman, — dedi. — Bu yerda sen bilan birga non ham yemayman, suv ham ichmayman. 17 Egamiz menga: “U yerda non ham yemaysan, suv ham ichmaysan, borgan yo‘lingdan qaytmaysan”, deb amr bergan.

18 Payg‘ambar esa unga shunday dedi:

— Men ham senga o‘xshagan bir payg‘ambarman, farishta menga Egamizning shu so‘zlarini aytdi: “Uni yo‘ldan qaytarib, o‘zing bilan birga uyingga olib kel, non yeb, suv ichib olsin.”

Lekin keksa payg‘ambar yolg‘on gapirayotgan edi.

19 Shunday qilib, Yahudolik payg‘ambar keksa payg‘ambar bilan birga qaytib keldi,

uning uyida tamaddi qildi. 20 Ular dasturxon atrofida o‘tirganlarida, keksa payg‘ambarga
Egamiz shu so‘zlarni ayon qildi. 21 Keksa payg‘ambar esa Yahudolik payg‘ambarga dedi:
— Egamiz shunday aytmoqda: “Sen Mening so‘zimga itoat qilmading! Men, Egangiz
Xudoning amriga qarshi chiqib 22 orqangga qaytding. Men senga non yema, suv ichma,
deb aytgan yerda yeb–ichding. Endi sening jasading ota–bobolaring xilxonasiga dafn
qilinmaydi.”
23 Yahudolik payg‘ambar tamaddi qilib bo‘lishi bilanoq, keksa payg‘ambar uning
eshagini egarlab berdi. 24 Yahudolik payg‘ambar yo‘lda ketayotgan edi, oldidan bir sher
chiqib qoldi. Sher uni tilka–pora qilib, jasadni yo‘lning ustiga tashladi. Eshak ham, sher
ham jasadning oldida turardi. 25 Shu yerdan o‘tib ketayotgan odamlar yo‘l o‘rtasidagi
jasadni va jasad yonida turgan sherni ko‘rdilar. Odamlar keksa payg‘ambar yashaydigan
shaharga borib, ko‘rganlarini aytdilar. 26 Yahudolik payg‘ambarni yo‘ldan qaytarib
kelgan keksa payg‘ambar shu voqeani eshitib dedi:
— Egamizning amriga itoat etmagan payg‘ambar o‘shadir. Shuning uchun Egamiz
sherni yubordi va sher uni tilka–pora qilib tashladi. Egamiz, aytganiga binoan, uni
o‘ldirdi.
27 Keksa payg‘ambar o‘g‘illariga: “Eshagimni egarlanglar!” — dedi. O‘g‘illari eshakni
egarlab berdilar. 28 U borib, yo‘l o‘rtasida yotgan jasadni topdi. Eshak ham, sher ham
jasadning yonida turar, sher jasadni yemagan, eshakka hech qanday zarar yetkazmagan
edi. 29 Keksa payg‘ambar Yahudolik payg‘ambarning jasadini yerdan ko‘tarib olib,
eshakka ortdi va orqasiga qaytarib olib ketdi. Uni dafn qilib, unga aza ochay deb,
shaharga keldi. 30 Jasadni o‘zining qabriga qo‘ygach: “Voy jigarim, voy jigarim!” deb qabr
ustida faryod chekdi. 31 Yahudolik payg‘ambarni dafn qilgach, keksa payg‘ambar
o‘g‘illariga:
— Vafot etganimdan so‘ng meni ham Yahudolik payg‘ambar dafn qilingan xilxonaga
qo‘yinglar, — dedi. — Suyaklarim uning suyaklari yonida tursin. 32 Egamizning amriga
ko‘ra, Baytildagi qurbongoh va Samariya* shaharlaridagi hamma sajdagohlar haqida
uning aytgan so‘zlari albatta bajo bo‘ladi.

Yeribomning gunoh ishlari

33 Bu hodisadan keyin ham Yeribom qabih yo‘ldan qaytmadi. Yana sajdagohlarga
oddiy xalqdan ruhoniylar tayin etdi. Kimni xohlasa, o‘shani ruhoniy qilib tayinlayverdi.
34 Bu gunoh ishlar Yeribom naslining yer yuzidan qirilib, yo‘qolib ketishiga sabab bo‘ldi.

14–BOB

Yeribomning o‘g‘li vafot etadi

1 O‘sha paytda shoh Yeribomning o‘g‘li Abiyo kasal bo‘lib qoldi. 2 Yeribom xotiniga:
— Qani, tur, kiyimlaringni o‘zgartir, toki mening xotinim ekanligingni hech kim bilib
qolmasin, — dedi. — Shilo‘ga jo‘na. Oxiyo payg‘ambar o‘sha yerda. Isroil xalqining shohi
bo‘lishim haqida u bashorat qilgan edi*. 3 O‘nta non, bir nechta kulcha, bir xumcha asal
olib, Oxiyo payg‘ambarning huzuriga bor. O‘g‘limizga nima bo‘lishini u senga aytadi.
4 Xotini Yeribom aytganiday qildi, o‘rnidan turib, Shilo‘ga yo‘l oldi. Oxiyoning uyiga
yetib ham keldi. Oxiyo qartayganidan ko‘zlari ko‘rmaydigan bo‘lib qolgan edi. 5 Egamiz
Oxiyoga dedi:
— Ana, Yeribomning xotini kelyapti, qara, qiyofasini o‘zgartirib olgan, o‘g‘li kasal,

unga nima boʻladi — shuni sendan soʻramoqchi. Unga shunday–shunday deb ayt.
6 Yeribomning xotini eshikni ochib, ostona hatlashi bilanoq, Oxiyo uning qadam
tovushlarini eshitdi. Shu zahoti Oxiyo ayolga dedi:
— Kel, Yeribomning xotini, ichkariga kir. Meni birov tanib qolmasin, deb boshqacha
kiyinib olibsanmi?! Ammo senga sovuq xabarlarim bor. 7 Izingga qaytib bor, Yeribomga
shu gaplarni yetkaz: “Isroil xalqining Xudosi — Egamiz shunday aytmoqda: seni xalqing
orasidan yuksaltirib, xalqim Isroil ustidan hukmdor qildim. 8 Shohlikni Dovud
xonadonidan tortib olib, senga berdim. Biroq sen qulim Dovudga oʻxshagan boʻlmading.
U mening amrlarimga rioya qilib, butun qalbi bilan Menga ergashar, oldimda toʻgʻri
ishlarnigina qilardi. 9 Sen oʻzingdan oldin oʻtganlarning hammasidan ham koʻp yomon
ishlar qilding. Oʻzing uchun boshqa xudolarning tasvirlarini yasab, Meni
gʻazablantirding. Mendan yuz oʻgirding. 10 Ana shu qilmishlaring evaziga xonadoningga
baloyu ofat keltiraman. Xoh qul boʻlsin, xoh ozod boʻlsin, Isroildagi har bir erkak
urugʻingni qirib yuboraman. Xonadoningni, xuddi supurindini bitta qoldirmay
uloqtirganday, ildizidan quritib tashlayman. 11 Shaharda oʻlgan oilang aʼzosi
koʻppaklarga yem boʻlar, qirda oʻlgani koʻkdagi qushlarga yem boʻlar. Zotan, bu soʻzlarni
Egamiz aytgan.” 12 Endi oʻrningdan tur, uyingga joʻna. Shaharga qadam qoʻyishing
bilanoq, bolang nobud boʻladi. 13 Butun Isroil xalqi bolangni dafn qiladi, unga aza tutadi.
Isroil xalqining Xudosi — Egamiz Yeribom xonadonidan faqat shu bolanigina xush
koʻrdi. Yeribom xonadonidan qabrga koʻmiladigan faqat shu boladir. 14 Shundan keyin
Egamiz Oʻzi uchun Isroil ustiga bir shoh qoʻyadi. U shoh Yeribom xonadonini oʻsha kuni
— oʻsha zahotiyoq qirib bitiradi. 15 Egamiz Isroil xalqini shunday uradiki, Isroil suv
ichida oʻsgan qamishga oʻxshab titraydi. Egamiz Isroil xalqini ota–bobosiga bergan bu
hosildor yurtdan yulib olib, Furot daryosining narigi tomoniga sochib yuboradi. Chunki
bu xalq Asheraga* atab ustunlar yasab, Egamizni gʻazablantirdi. 16 Yeribom gunoh qildi,
Isroil xalqini ham gunohga botirdi, shuning uchun Egamiz Isroilni tark etadi.
17 Yeribomning xotini oʻrnidan turib, uyiga joʻnadi. U Tirzaga* yetib kelib, uyining
ostonasidan hatlashi bilanoq, bolasi jon berdi. 18 Egamizning Oʻz quli Oxiyo paygʻambar
orqali aytgan soʻzlari bajo boʻldi, butun Isroil xalqi bolani dafn qilib, unga aza tutdi.

Yeribomning oʻlimi

19 Yeribomning boshqa ishlari — qanday jang qilgani, qay tarzda hukmronlik qilgani
— hammasi “Isroil shohlari tarixi” kitobida yozilgan. 20 Yeribom yigirma ikki yil shoh
boʻldi. U ham olamdan oʻtdi. Oʻrniga oʻgʻli Nadov shoh boʻldi.

Yahudo shohi Raxabom

21 Sulaymonning oʻgʻli Raxabom esa Yahudoda hukmronlik qildi. U taxtga oʻtirgan
paytda qirq bir yoshda edi. Onasi Ommonlik boʻlib, ismi Namax edi. Raxabom Quddusda
oʻn yetti yil shohlik qildi. Egamiz hamma Isroil qabilalarining shaharlari orasidan
Quddus shahrini Oʻzi ulugʻlanishi uchun tanlab olgan edi.
22 Yahudo xalqi ham Egamiz oldida qabihliklar qildi. Gunoh ishlari bilan Xudoning
rashkini qoʻzgʻatib, Uni ota–bobolaridan ham qattiqroq gʻazablantirdi. 23 Har bir tepalik
joyda, har bir yashil daraxt ostida oʻzlariga sajdagohlar*, butsimon toshlar, Asheraning
ustunlarini yasadilar. 24 Bu yurtdagi sajdagohlarda fohishlar* ham bor edi. Yahudo xalqi
shunchalik koʻp qabih ishlar qildiki, ularning qilmishlari Kanʼon yurtidan Egamiz quvib
yuborgan hamma xalqlarning jirkanch ishlariga barobar edi.

25 Raxabom hukmronligining beshinchi yilida* Misr shohi Shishax Quddusga bostirib
keldi. 26 U Egamizning uyidagi va saroydagi xazinalarni tortib oldi, qo‘liga nima ilinsa,
hammasini oldi. Sulaymon yasattirgan hamma oltin qalqonlarni ham oldi. 27 Shoh
Raxabom oltin qalqonlar o‘rniga bronza qalqonlar yasattirdi va ularni shoh saroyi
darvozasini qo‘riqlaydigan soqchilar boshliqlari qo‘liga berdi. 28 Shoh Egamizning uyiga
kirganda, soqchilar qalqonlarni ko‘tarib borishar, keyin esa qalqonlarni joyiga eltib
qo‘yishardi.
29-30 Raxabom bilan Yeribom butun umri davomida urishib keldilar. Raxabomning
boshqa ishlari, butun faoliyati “Yahudo shohlari tarixi” kitobida yozilgan. 31 Nihoyat,
Raxabom olamdan o‘tib, Dovud qal’asida, ota–bobolari yoniga dafn qilindi. Onasi
Ommonlik bo‘lib, ismi Namax edi. Raxabomning o‘rniga o‘g‘li Abiyo* shoh bo‘ldi.

15–BOB

Yahudo shohi Abiyo

1 Isroil shohi Yeribom hukmronlik qilayotganiga o‘n sakkiz yil bo‘lganda, Abiyo
Yahudoga shoh bo‘ldi. 2 U Quddusda uch yil shohlik qildi. Onasining ismi Maxo bo‘lib, u
Absalomning* qizi* edi. 3 Abiyo ham otasining ilgari qilgan gunohlarini davom ettirdi.
Abiyo o‘zining Egasi Xudoga chin dildan bog‘langan bobosi Dovud singari emas edi.
4 Shunga qaramay, Dovudning haqi–hurmati uchun Egasi Xudo Abiyodan keyin
Abiyoning o‘g‘lini taxtga o‘tqazdi. Shunday qilib, Quddusni mustahkam qilib, shu
shaharda Dovud sulolasining chirog‘ini o‘chirmadi. 5 Zero, Dovud Egamiz oldida doim
to‘g‘ri ish qildi. Xet xalqidan bo‘lgan Uriyoga* qilgan nomunosib xatti–harakatini
hisobga olmaganda, Dovud umrining oxirigacha Egamizning amridan zinhor bo‘yin
tovlamadi. 6-7 Raxabom bilan Yeribom o‘rtasida boshlangan urush Abiyoning umri
oxirigacha davom etdi. Abiyoning boshqa ishlari, butun faoliyati “Yahudo shohlari
tarixi” kitobida yozib qoldirilgan. 8 Abiyo olamdan o‘tib, Dovud qal’asida, ota–bobolari
yoniga dafn qilindi. Uning o‘rniga o‘g‘li Oso shoh bo‘ldi.

Yahudo shohi Oso

9 Yeribom Isroilga hukmronlik qilayotganiga yigirma yil bo‘lganda, Oso Yahudo
hukmdori bo‘ldi. 10 U Quddusda qirq bir yil shohlik qildi. Buvisining ismi Maxo bo‘lib, u
Absalomning qizi edi. 11 Oso, bobosi Dovud kabi, Egamiz oldida to‘g‘ri ishlar qildi.
12 Sajdagohlardagi fohishlarni* bu yurtdan quvdi. Ota–bobolari yasagan hamma butlarni
yo‘q qildi. 13 Buvisi* Maxo Asheraning* makruh tasvirini yasattirgan edi, shuning uchun
Oso buvisini malikalik martabasidan* mahrum qildi. U buvisi yasattirgan butni qo‘porib
tashlab, Qidron soyligida* yoqib yubordi. 14 Oso sajdagohlarni yo‘q qila olmagan bo‘lsa–
da, umr bo‘yi Egamizga sodiq qoldi. 15 Otasi va o‘zi Xudoga atab nazr etgan oltinu
kumushlarni, idishlarni Egamizning uyiga olib keldi. 16 Oso bilan Isroil shohi Basho
umrlarining oxirigacha bir–birlari bilan urishib o‘tdilar. 17 Isroil shohi Basho Yahudoga
hujum qildi. Odamlar Yahudo yurtiga osonlikcha kirib chiqa olmasligi uchun, Basho
Rama shahrini* mustahkamladi.
18 Oso esa Egamiz uyining xazinasida qolgan hamma oltin va kumushni hamda shoh
saroyi xazinalarini oldi. Xazinalarni a’yonlari orqali Oram shohi Banhadad huzuriga
jo‘natdi. Xeziyonning nabirasi Banhadad Tavrimmo‘nning o‘g‘li edi. Oso Damashqda
o‘tirgan Banhadadga shu gaplarni yetkazishni buyurdi: 19 “Sening otang bilan mening

otam o‘rtasida ittifoq bo‘lgani kabi, sen bilan mening o‘rtamda ham ittifoq bo‘lsin. Senga hadya qilib kumush va oltin berib yuboryapman. Isroil shohi Basho bilan ittifoq tuzgan eding, endi o‘shani bekor qil, toki u yurtimdan jo‘nab qolsin.”

20 Banhadad shoh Osoning taklifini qabul qildi, lashkarboshilariga: “Isroil
shaharlariga hujum qilinglar”, deb ularni o‘sha yoqqa yubordi. Ular Iyxon, Dan, Ovil–
Bayt–Maxo shaharlarini, butun Naftali yerlari bilan birga Jalila ko‘li* atroflarini bosib
oldilar. 21 Basho bu voqeani eshitgach, Ramani mustahkamlash fikridan voz kechib,
Tirzaga qaytib keldi. 22 Shoh Oso Yahudo xalqining bittasini ham qoldirmay chaqirdi.
Ularga Rama shahrini mustahkamlashda Basho ishlatgan tosh va yog‘ochlarni
tashittirdi. Oso o‘sha tosh va yog‘ochlar bilan Benyamin yerlaridagi Gebo hamda Mispax
shaharlarini mustahkamladi.

23 Osoning boshqa ishlari, qahramonliklari, butun faoliyati, mustahkam qilgan
shaharlari haqida “Yahudo shohlari tarixi” kitobida yozib qoldirilgan. U ham keksayib,
oyoqlari og‘riydigan bo‘lib qoldi. 24 Nihoyat, Oso olamdan o‘tib, bobosi Dovudning
qal’asida, ota–bobolari yoniga dafn qilindi. Uning o‘rniga o‘g‘li Yohushafat shoh bo‘ldi.

Isroil shohi Nadov

25 Oso Yahudoda shohlik qilayotganiga ikki yil bo‘lganda, Nadov Isroil shohi bo‘ldi va
ikki yil hukmronlik qildi. Nadov Yeribomning o‘g‘li edi. 26 U ham Egamiz oldida
qabihliklar qildi. Isroilni gunohga botirgan otasidan namuna oldi.

27 Issaxor xonadonidan Oxiyo o‘g‘li Basho Nadovga qarshi suiqasd uyushtirib,
Filistlarning Gibiton shahrida uni o‘ldirdi. O‘shanda Nadov va butun Isroil lashkari
Gibiton shahrini qamal qilib turgan edi. 28 Oso Yahudoda uchinchi yili shohlik
qilayotganda, Basho Nadovni o‘ldirdi. Basho Nadovning o‘rniga shoh bo‘ldi. 29 U shoh
bo‘lgandan keyin Yeribomning butun oilasini bitta qo‘ymay qirib tashladi. Shunday qilib,
Egamizning O‘z quli, Shilo‘lik Oxiyo* orqali aytgan so‘zlari* bajo bo‘ldi. 30 Yeribomning
o‘zi ham gunoh qilib, Isroil xalqini ham gunohga botirib, Isroil xalqining Xudosi —
Egamizni g‘azablantirgani uchun shu voqealar yuz bergandi.

31 Nadovning boshqa ishlari, butun faoliyati “Isroil shohlari tarixi” kitobida yozib
qoldirilgan. 32 Oso bilan Isroil shohi Basho umrlarining oxirigacha bir–biri bilan urishib
o‘tdilar.

Isroil shohi Basho

33 Yahudo shohi Oso hukmronlik qilayotganiga uch yil bo‘lganda, Basho Tirzada
butun Isroil xalqi ustidan hukmdor bo‘ldi va yigirma to‘rt yil shohlik qildi. 34 U ham
Yeribomning yo‘lidan ketib, Egamiz oldida qabihliklar qilib, Isroilni gunohga botirdi.

16–BOB

1 Egamiz Isroil shohi Bashoga Xonin o‘g‘li Yohu orqali shu so‘zlarni ayon qilgan edi:
2 — Seni Men tuproq ostidan chiqarib yuksaltirdim. Seni xalqim Isroilning hukmdori
qildim. Sen esa Yeribomning yo‘lidan ketib, xalqim Isroilni gunohga botirding.
Gunohlaringiz Meni g‘azablantirdi. 3 Mana ko‘rasan, Nabat o‘g‘li Yeribom xonadoni
singari, sening oilangni ham ildizidan quritaman. 4 Sening xonadoningdan bo‘lgan odam
shaharda o‘lsa ko‘ppaklarga yem bo‘lar, qirda o‘lsa ko‘kdagi qushlarga yem bo‘lar.

5 Bashoning boshqa ishlari, faoliyati, qahramonliklari “Isroil shohlari tarixi” kitobida
yozib qoldirilgan. 6 Basho ham olamdan o‘tib, Tirzada ota–bobolari yoniga dafn qilindi.

Uning o‘rniga o‘g‘li Elox shoh bo‘ldi. 7 Xonin o‘g‘li Yohu orqali Bashoga va uning
xonadoniga Egamiz O‘zining so‘zlarini ayon qilgan edi. Basho Egamiz oldida Yeribom
xonadoni kabi qabihliklar qilgani va Yeribomning xonadonini qirib tashlagani uchun
Egamiz undan g‘azablandi.

Isroil shohi Elox

8 Oso Yahudoga shohlik qilayotganiga yigirma olti yil bo‘lganda, Elox Isroil shohi
bo‘ldi. Elox Bashoning o‘g‘li edi. U Tirzada istiqomat qilib, ikki yil hukmronlik qildi.
9 Lekin jang aravalarining yarmiga qo‘mondon bo‘lgan Zimri unga suiqasd uyushtirdi.
Elox Tirzada turgan paytda Tirzadagi bosh vaziri Arzoning uyida ichib mast bo‘lib qoldi.
10 Shunda Zimri ichkariga kirdi–yu, uni o‘ldirdi. So‘ng Zimri shoh bo‘lib oldi. Oso
Yahudoda shohlik qilayotganiga yigirma yetti yil bo‘lganda, shu voqea yuz berdi.
11 Zimri shoh bo‘lib taxtga o‘tirgach, Basho xonadonini bitta qo‘ymay qirib tashladi.
Bashoning qarindosh–urug‘idan ham, yor–birodarlaridan ham bironta erkak zoti tirik
qolmadi. 12 Egamizning Yohu payg‘ambar orqali aytgan so‘zlariga ko‘ra, Zimri Basho
xonadonini yo‘q qildi. 13 Basho bilan uning o‘g‘li Eloxning gunohlari ko‘p bo‘lib, ular
Isroil xalqini gunohga botirgan, o‘zlarining butlari bilan Isroil xalqining Xudosi —
Egamizni g‘azablantirgani uchun shu hodisalar yuz bergan edi. 14 Eloxning boshqa
ishlari, butun faoliyati “Isroil shohlari tarixi” kitobida yozib qoldirilgan.

Isroil shohi Zimri

15 Oso Yahudoga shohlik qilayotganiga yigirma yetti yil bo‘lganda, Zimri ham Tirzada
yetti kun Isroilga shoh bo‘ldi. Isroil lashkari shu paytda Gibiton shahrini qamal qilib
turgan edi. Bu shahar Filistlarniki edi. 16 “Zimri shohga suiqasd uyushtiribdi, shohni
o‘ldiribdi” degan xabarni lashkar Gibitonni qamal qilib turgan yerda eshitdi. Xalq
lashkarboshi Omrini qarorgohda o‘sha kuniyoq Isroil shohi qilib ko‘tardi. 17 Omri Isroil
lashkarini boshlab Gibitondan chiqib keldi va Tirzani qamal qildi. 18 Zimri esa
shaharning qo‘ldan ketganini ko‘rdi–yu, shoh saroyining ichki qal’asiga kirdi. Keyin
orqasidan shoh saroyiga o‘t qo‘yib yuborib, o‘zi ham nobud bo‘ldi. 19 Zimri gunoh qilgani
uchun shu hodisalar yuz bergan edi. U Yeribomning yo‘lidan yurib, Egamiz oldida
qabihliklar qilgan va Isroil xalqini gunohga boshlagan edi. 20 Zimrining boshqa ishlari,
xoinligi “Isroil shohlari tarixi” kitobida yozib qoldirilgan.

Isroil shohi Omri

21 Endi Isroil xalqi ikkiga bo‘linib qoldi. Xalqning yarmi: “Ginat o‘g‘li Tivnaxni shoh
qilamiz”, deb unga ergashdi, yarmi esa Omrining etagini tutdi. 22 Omrining etagini tutgan
xalq Tivnaxga ergashgan xalq ustidan g‘olib keldi, Tivnax esa o‘ldi. Omri shoh bo‘lib
qoldi. 23 Oso Yahudoga shohlik qilayotganiga o‘ttiz bir yil bo‘lganda, Omri Isroil shohi
bo‘ldi. U hammasi bo‘lib o‘n ikki yil hukmronlik qildi. Olti yili Tirzada o‘tdi. 24 U Shamer
ismli odamdan to‘rt pud* kumushga tepalikni sotib olib, u yerga shahar qurdirdi.
Shaharni tepalikning oldingi egasi Shamerning ismi bilan Samariya deb atadi.
25 Omri ham Egamiz oldida qabihliklar qildi. U shu darajada qabihlik qildiki, avval
o‘tgan shohlarning birortasi Omrichalik qabihlik qilmagan edi. 26 Omri ham Isroil xalqini
gunohga botirgan Nabat o‘g‘li Yeribomning yo‘lidan ketdi. Omri xalqni butparastlikka
boshlab, Isroil xalqining Xudosi — Egamizni g‘azablantirdi. 27 Omrining boshqa ishlari,
ko‘rsatgan qahramonliklari “Isroil shohlari tarixi” kitobida yozib qoldirilgan. 28 Nihoyat,
Omri olamdan o‘tib, Samariyada ota–bobolari yoniga dafn qilindi. Uning o‘rniga o‘g‘li

Axab shoh bo‘ldi.

Isroil shohi Axab

29 Oso Yahudoga shohlik qilayotganiga o‘ttiz sakkiz yil bo‘lganda, Axab Isroil shohi
bo‘ldi. Axab Omrining o‘g‘li edi. U Samariyada turib, yigirma ikki yil davomida Isroilni
boshqardi. 30 Axab Egamiz oldida shunday qabihliklar qildiki, oldin o‘tgan shohlarning
birortasi ham shunchalik qabihlik qilmagan edi. 31 Hatto Nabat o‘g‘li Yeribomning
gunohlariga sherik bo‘lgani kamlik qilganday, Sidonliklar* shohi Etbaalning qizi
Izabelga uylanib, Baalga sajda qilib, xizmat qila boshladi. 32 Samariyada Baalga atab
qurgan uyda qurbongoh ham barpo qildi. 33 Axab, buning ustiga, Asheraga* atab ustun
yasadi. U o‘zidan avval o‘tgan hamma Isroil shohlaridan ziyoda gunoh qilib, Isroil
xalqining Xudosi — Egamizni g‘azablantirdi.

34 Axab shohlik qilgan davrda Baytillik Xiyol Yerixo shahrini qaytadan qurdi.
Egamizning Nun o‘g‘li Yoshua orqali qilgan bashorati* bajo bo‘ldi. Xiyol to‘ng‘ich o‘g‘li
Aburamning joni evaziga shaharning poydevorini yotqizdi. Kichik o‘g‘li Saxuvning joni
evaziga* esa shahar darvozasini o‘rnatdi.

17–BOB

Ilyos va qurg‘oqchilik

1 Giladning* Tishba shahridan bo‘lgan Ilyos Axabga dedi:

— Men xizmat qilayotgan Isroil xalqining Xudosi — Egamiz shohid! Men
aytmagunimcha, shu yillarda na shudring tushadi, na yomg‘ir yog‘adi*.

2 Ilyosga Egamiz shu so‘zlarni ayon qildi:

3 — Bu yerdan ket, sharq tomonga bor. Iordan daryosi sharqidagi Xarit jilg‘asi yonida
berkinib ol. 4 Sen o‘sha jilg‘aning suvidan ichasan, qarg‘alarga amr berdim: ular seni
boqishadi.

5 Ilyos Egamizning amriga binoan, bu yerdan ketdi. Iordan daryosining sharqidagi
Xarit jilg‘asiga borib, o‘sha yerda qoldi. 6 Qarg‘alar unga ertalab ham, kechqurun ham
non va go‘sht olib kelishar, o‘zi esa jilg‘aning suvidan ichardi. 7 Butun yurt bo‘ylab
yomg‘ir yog‘madi, oradan bir necha kun o‘tgach, jilg‘a ham qurib qoldi.

Ilyos va Zorafatlik beva ayol

8 Keyin Ilyosga Egamiz shu so‘zlarni ayon qildi:

9 — Tur o‘rningdan! Sidondagi Zorafat shahriga* borib, o‘sha yerda yasha. Shu
shaharda yashaydigan bir beva ayolga amr etdim, u seni boqadi.

10 Ilyos Zorafatga jo‘nadi. Shahar darvozasi oldiga yetib borgach, qarasa, bir ayol
o‘tin terib yuribdi. Ilyos ayolni chaqirib, unga dedi:

— Iltimos, menga ichgani idishda ozgina suv bersangiz.

11 Ayol suvga ketayotgan edi, uni yana chaqirib aytdi:

— Iltimos, menga bir burda non ham ola keling.

12 Ayol dedi:

— Egangiz Xudo shohid! Uyimda non uvog‘i ham yo‘q, faqat xumda bir hovuch un va
xurmachada ozgina zaytun moyi bor, xolos. Ikki–uchta tarasha o‘tin terib olsam, borib,
o‘zim va o‘g‘lim uchun nimadir tayyorlagan bo‘lardim. Bu oxirgi yeguligimiz bo‘ladi.
Balki keyin o‘lib ketarmiz.

13 Ilyos ayolga dedi:
— Qo‘rqmang, boravering, yegulikni tayyorlayvering. Faqat oldin o‘sha un va moydan kulcha qilib, menga olib kelib bering. O‘zingizga va o‘g‘lingizga esa keyin qilarsiz. 14 Binobarin, Isroil xalqining Xudosi — Egamiz shunday aytmoqda: “Men yer uzra yomg‘ir yog‘dirmagunga qadar, xumdagi un tamom bo‘lmas, xurmachadagi moy ham tugamas.”
15 Ayol borib, Ilyosning aytganlarini qildi. Shundan keyin Ilyos bilan ayolning oilasi uchun yegulik ko‘p kunlarga yetadigan bo‘ldi. 16 Egamizning Ilyos orqali aytganlariga binoan, xumdagi un ham tamom bo‘lmadi, xurmachadagi moy ham tugamadi.
17 Oradan bir qancha vaqt o‘tgach, xonadon sohibasi — ayolning o‘g‘li kasal bo‘lib qoldi. U shunchalik og‘ir dardga yo‘liqdiki, oxiri jon berdi. 18 Ayol Ilyosga dedi:
— Mendan nima istaysiz, ey Xudoning odami?* Siz gunohlarimni Xudoga eslatgani va o‘g‘limning o‘limiga sababchi bo‘lgani kelibsiz–da?!*
19 Ilyos ayolga: “Menga bering o‘g‘lingizni!” — deb bolani ayolning quchog‘idan oldi, uni o‘zi istiqomat qiladigan boloxonaga olib chiqib, to‘shakka yotqizdi. 20 So‘ngra Egamizga xitob qildi:
— Ey Egam Xudo! Men shu beva ayolning mehmoniman. Nahot, uning o‘g‘lini nobud qilib, boshiga kulfat yog‘dirsang?!
21 Ilyos bolaning ustiga uch marta cho‘zilib, keyin Egamizga yana xitob qildi:
— Ey Egam Xudo! Iltijo qilaman, bu bolaga qaytadan jon ato et!
22 Egamiz Ilyosning iltijosini eshitdi. U bolaga qaytadan jon ato etib, tiriltirdi. 23 Ilyos bolani boloxonadan uyga olib tushdi, uni onasiga berib: “Qarang, o‘g‘lingiz tirik!” — dedi. 24 Ayol esa Ilyosga:
— Endi bildim, siz Xudoning odami ekansiz, — dedi. — Egamiz chindan ham siz orqali gapirar ekan.

18–BOB

Ilyos va Baalning payg‘ambarlari

1 Oradan ancha kunlar o‘tdi. Nihoyat, qurg‘oqchilikning uchinchi yili Ilyosga Egamiz shu so‘zlarni ayon qildi:
— Axabning huzuriga bor. Men yer yuziga yomg‘ir yog‘diraman.
2 Ilyos Axabga ko‘ringani ketdi. Bu vaqtda Samariyada dahshatli ocharchilik hukm surardi.
3 Axab saroy boshqaruvchisi Obodiyoni chaqirdi. Obodiyo Egamizdan juda qo‘rqardi. 4 Izabel Egamizning payg‘ambarlarini o‘ldirayotganda, Obodiyo yuzta payg‘ambarni g‘orga olib ketgan va ellikta–ellikta qilib o‘sha yerda yashirgan, ularni non–suv bilan ta’minlab turgandi. 5 Axab Obodiyoga dedi:
— Yurtdagi hamma buloqlar va soyliklarga bor, o‘t–o‘lan topib, otlarni, xachirlarni boqaylik, mol–holdan ayrilib qolmaylik tag‘in.
6 Ikkovi aylanib chiqish uchun yurt hududini taqsimlab olishdi. Axab bir yo‘ldan o‘zi alohida ketdi. Obodiyo ham o‘zi alohida boshqa yo‘ldan ketdi.
7 Obodiyo yo‘lda ketayotganda, ro‘parasidan Ilyos chiqib qoldi. Obodiyo Ilyosni tanidi va yetti bukilib ta’zim qilib:
— Sizmisiz, to‘ram Ilyos? — deb so‘radi.

8 — Ha, menman, — deb javob berdi Ilyos unga. — Bor, xo‘jayiningga: “Ilyos shu
yerda”, deb ayt.
9 — Mening qanday aybim borki, siz men, qulingizni Axabning qo‘liga topshiryapsiz?!
— dedi Obodiyo. — Meni o‘ldirish uchunmi?! 10 Egangiz Xudo shohid! Birorta shohlik
yoki xalq yo‘qki, xo‘jayinim sizni axtarib topish uchun o‘sha yerlarga biror odamni
jo‘natmagan bo‘lsin. O‘sha shohliklardan, xalqlardan: “Ilyos bu yerda yo‘q”, deb javob
kelgandan keyin ham ularga sizni topa olmaganlari haqida qasam ichdirdi. 11 Endi esa
siz: “Bor, xo‘jayiningga, Ilyos shu yerda, deb ayt”, deyapsiz. 12 Yoningizdan ketishim
bilanoq, Egamizning Ruhi sizni biror joyga olib ketadi. Qayergaligini esa men bilolmay
qolaman. Men Axabning huzuriga borib xabar berdim ham deylik. U esa sizni topa
olmasa, o‘sha zahoti meni o‘ldiradi. Lekin men, qulingiz, bolaligimdan Egamizdan
qo‘rqaman. 13 Izabel Egamizning payg‘ambarlarini o‘ldirayotganda, men Egamizning
payg‘ambarlaridan yuztasini ellikta–ellikta qilib g‘orlarda yashirdim, ularga non–suv
berib turdim. Nahotki mana shu qilgan ishlarim haqida to‘ram eshitmagan bo‘lsalar?!
14 Endi esa siz menga: “Bor, Ilyos shu yerda, deb xo‘jayiningga ayt”, deyapsiz. U meni
o‘ldiradi–ku!
15 — Men xizmat qilayotgan Sarvari Olam shohid! Bugun men unga albatta
ko‘rinaman, — dedi Ilyos.
16 Shundan keyin Obodiyo Axabning yoniga borib, uni voqeadan xabardor qildi. Axab
esa Ilyosni kutib olish uchun ketdi. 17 Axab Ilyosni ko‘rdi–yu: “Isroilga balo keltiradigan
senmisan hali?!” deb do‘q urdi.
18 — Isroilga balo keltiradigan men emas, — deya javob berdi Ilyos. — Aksincha, sen
va otangning xonadoni Egamizning amrlaridan yuz o‘girdingizlar, Baalga sajda qilib,
Isroilga balo keltirdingizlar. 19 Endi birortasiga buyur: butun Isroil xalqini, Baalning
Izabel dasturxonidan taom yeydigan 450 nafar payg‘ambarini, Asheraning* 400 nafar
payg‘ambarini menga Karmil tog‘i yoniga to‘plab bersin.
20 Axab jamiki Isroil xalqini, payg‘ambarlarni Karmil tog‘i* yoniga to‘pladi. 21 Ilyos
xalqning ro‘parasiga chiqib, ularga tanbeh berdi:
— Qachongacha ikki kemaning uchini tutib yurasizlar?! Agar Egamiz Xudo bo‘lsa,
Unga ergashinglar. Bordi–yu, Baal Xudo bo‘lsa, unga sajda qilinglar.
Xalqdan sado chiqmadi. 22 Ilyos yana xalqqa qarab gapira boshladi:
— Egamizning payg‘ambarlaridan yolg‘iz men qoldim, Baalning payg‘ambarlari esa
450 kishi. 23 Endi bizga ikkita buqa keltiringlar. Baalning payg‘ambarlari bitta buqani
tanlab olib nimtalasin, keyin o‘tinlarning ustiga qo‘yishsin, lekin olov yoqishmasin. Men
ham buqaning bittasini tayyorlab o‘tinlarning ustiga qo‘yaman, lekin olov yoqmayman.
24 Baalning payg‘ambarlari iltijo qilib, Baalni chaqirishsin. Men ham iltijo qilib, Egamizni
chaqiraman. Kimning Xudosi alanga orqali javob bersa, Xudo O‘shadir.
Xalqqa bu gap juda ma’qul keldi. 25 Ilyos Baalning payg‘ambarlariga dedi:
— Sizlar ko‘pchiliksiz, bitta buqani tanlab olib, avval sizlar nimtalanglar. Keyin
xudoyingizga iltijo qilib, chaqiringlar, lekin olov yoqmanglar.
26 Baalning payg‘ambarlari o‘zlari tanlab olgan buqani nimtalab, tayyorlab qo‘ydilar.
Keyin ertalabdan peshingacha: “Ey Baal, bizga javob ber!” deb o‘zlarining xudosiga iltijo
qilib, chaqirdilar. Lekin na biron sado keldi, na birortasi javob berdi. Ular o‘zlari qurgan
qurbongohning atrofida sakrayverdilar.
27 Peshin vaqti bo‘ldi. Ilyos endi ularning ustidan kula boshladi:

— Balandroq ovoz bilan chaqiringlar. Axir, u xudo–ku, balki xayol surib o‘tirgandir, yo biror narsa bilan mashg‘uldir, yoki yo‘lda kelayotgandir, yoki uxlab yotgan bo‘lsa, uyg‘otish kerakdir.

28 Xullas, ular baland ovoz bilan baqiraverdilar. Keyin, odatlariga ko‘ra, o‘zlariga pichoq va nayza sanchib, qon oqizdilar. 29 Peshin vaqti o‘tib ketdi. Kechki qurbonlik paytiga* qadar ular jazavaga tushib baqiraverdilar. Lekin na bir sado bo‘ldi, na birorta alomat, na bir javob bo‘ldi.

30 Ilyos: “Menga yaqinroq kelinglar”, — deb hamma odamlarni chaqirdi. Xalq Ilyosning yoniga keldi. Shu payt Ilyos Egamizning buzilgan qurbongohini qayta tiklay boshladi. 31 Ilyos o‘n ikkita tosh oldi. Bu toshlar Yoqubning o‘g‘illaridan kelib chiqqan qabilalarni anglatardi. Yoqubga Egamiz: “Sening noming Isroil bo‘ladi” degan so‘zlarni ayon qilgan edi*. 32 Ilyos o‘sha toshlarni ishlatib, Egamizga atab qurbongoh qurdi. Qurbongoh atrofida bir tog‘ora* bug‘doy sig‘adigan xandaq qazidi. 33 So‘ng o‘tinlarni qalashtirdi, buqani nimtalab, o‘tinlar ustiga qo‘ydi.

— To‘rtta ko‘zada to‘ldirib suv olib kelinglar, — dedi Ilyos odamlarga. — Suvni kuydiriladigan qurbonlikning va o‘tinlarning ustidan to‘kinglar.

34 Keyin: “Yana takrorlanglar!” deb buyurdi Ilyos odamlarga. Odamlar yana to‘rt ko‘za suv quydilar. “Uchinchi marta ham takrorlanglar!” — dedi. Uchinchi marta ham to‘rt ko‘za suv quydilar. 35 Shunda qurbongohning atrofida suv oqa boshladi, xandaq ham suvga to‘ldi.

36 Kechki qurbonlik payti bo‘lganda, Ilyos payg‘ambar qurbongohga yaqin kelib, xitob qildi:

— Ey Ibrohimning, Is’hoqning va Yoqubning* Xudosi — Egamiz! Bugun Sening Isroilda Xudo ekanliging, men esa Sening quling ekanligim ayon bo‘lsin. Bularning hammasini Sening amringga binoan bajo qilganim ayon bo‘lsin. 37 Menga javob ber, ey Egamiz! Menga javob ber, mana bu xalq Sening Xudo ekaningni, ularning dilini Sen O‘zingga moyil qiluvchi ekaningni bilsin.

38 O‘sha zahoti Egamiz olov yubordi. Olov kuydirishga atalgan qurbonlikni, o‘tinlarni, toshlarni va tuproqni yamlamay yutib yubordi. Xandaqdagi suvni ham olov tortib ketdi. 39 Bu hodisani kuzatib turgan xalq yuz tuban muk tushib: “Egamiz — Xudodir, Egamiz — Xudodir”, — dedi.

40 Shundan so‘ng Ilyos odamlarga: “Baalning payg‘ambarlarini ushlanglar, birortasi ham qochib ketmasin!” deb buyurdi. Odamlar Baalning payg‘ambarlarini ushladilar. Ilyos ularni Xishon daryosiga olib tushib, o‘sha yerda o‘ldirdi.

Qurg‘oqchilik tugaydi

41 Shu voqeadan keyin Ilyos Axabga: “Bor, endi yeb–ichaver, qattiq yomg‘ir yog‘adi, yomg‘ir yaqinlashayotganini eshityapman”, dedi. 42 Axab tamaddi qilib olish uchun ketdi. Ilyos esa Karmilning tepasiga chiqdi. Peshanasi yerga tekkudek cho‘kkalab o‘tirdi. 43 Keyin xizmatkoriga:

— Bor, dengiz tomonga qara–chi, — dedi. Xizmatkor ketdi.

— Hech narsa yo‘q ekan, — dedi u qaytib kelib.

Ilyos xizmatkoriga yetti marta: “Dengizga qara!” deb buyurdi. 44 Xizmatkor yettinchi marta ham borib qaradi.

— Ana, dengizdan kichkina bir bulut chiqib kelyapti, kattaligi odamning kafticha

keladi, — dedi u, nihoyat.

Ilyos xizmatkoriga buyurdi:

— Tez borib, Axabga ayt, aravasini qo‘shib jo‘nasin. Tag‘in yomg‘irda qolib ketmasin.

45 Shu payt birdan osmonni qop–qora bulut qopladi, shamol esib, shiddat bilan yomg‘ir yog‘a boshladi. Axab esa aravasiga o‘tirib, Yizrilga* yo‘l oldi. 46 Egamiz Ilyosga alohida kuch–qudrat ato qildi. U to‘nining etagini beliga qistirdi–da, Yizrilga qarab yugurib, Axabdan ilgarilab ketdi.

19–BOB

Ilyos Sinay tog‘ida

1 Axab Ilyos qilgan hamma ishlarni, barcha payg‘ambarlarni qanday qilib qilichdan o‘tkazganini Izabelga aytib berdi. 2 Izabel Ilyosga chopar orqali shu xabarni yetkazdi: “Payg‘ambarlarning jonini qanday olgan bo‘lsang, ertaga shu vaqtda men ham sening joningni olmasam, xudolar meni har qanday jazoga mubtalo qilsin, undan ham battarrog‘iga duchor qilsin.” 3 Ilyos bu xabarni eshitdi–yu, o‘rnidan turib, jonini qutqarish umidida Yahudoning Bersheba shahri* tomon yo‘l oldi. Xizmatkorini o‘sha shaharda qoldirib, 4 yolg‘iz o‘zi cho‘lda bir kun yo‘l yurdi. Nihoyat, bir yulg‘un daraxti ostiga kelib o‘tirdi. O‘ziga o‘zi o‘lim tilab:

— Yetar, ey Egam! — deb xitob qildi u, — endi jonimni ola qol. Axir, ota–bobolarimdan mening ortiq joyim yo‘q.

5 Ilyos yulg‘un ostida yotib uxlab qoldi. Bir payt farishta uni turtib: “Tur, taom yeb ol”, — dedi. 6 Ilyos turib qarasa, bosh tomonida issiq tosh ustida pishgan non, ko‘zada suv turibdi. U yeb–ichib bo‘lib, yana yotdi.

7 Egamizning farishtasi ikkinchi daf’a qaytib keldi va Ilyosga tegib: “Tur, taom yeb ol, oldingda hali uzoq yo‘l turibdi”, dedi. 8 Ilyos o‘rnidan turib yeb–ichib oldi. Taomning quvvati bilan qirq kechayu qirq kunduz yo‘l yurib, Xudoning tog‘i Sinayga* yetib keldi. 9 Ilyos Sinay tog‘idagi bir g‘orga kirib, o‘sha yerda tunadi. Bir payt Egamiz undan: “Ey Ilyos, bu yerlarda nima qilib yuribsan?” deb so‘radi.

10 — Ey Parvardigori Olam — Egam, Sen uchun ko‘p jon kuydirgan edim, — dedi Ilyos. — Chunki Isroil xalqi Sen bilan qilgan ahddan qaytdi, qurbongohlaringni buzdi, payg‘ambarlaringni qilichdan o‘tkazdi. Ey Egam, Sening payg‘ambarlaringdan yolg‘iz men qoldim, xolos. Endi jonimni olish uchun meni ham qidirib yuribdilar.

11 — Chiq, tog‘da Mening ro‘paramda tur, yoningdan o‘taman, — dedi Egamiz unga.

Egamiz o‘tayotganda, qudratli bo‘ron tog‘larni yorib, qoyalarni parcha–parcha qilib tashladi, lekin Egamiz bo‘ron ichida emasdi. Shamoldan so‘ng zilzila bo‘ldi, lekin Egamiz zilzilada ham emasdi. 12 Zilziladan so‘ng esa alanga ko‘tarildi. Biroq Egamiz alanga ichida ham emas ekan. Alangadan keyin esa mayin shabada tovushi eshitildi. 13 Ilyos bu tovushni eshitib, yuzini chakmoni bilan berkitib oldi. Tashqariga chiqib, g‘orning og‘zida turdi. Shunda yana: “Ilyos, bu yerda nima qilib turibsan?” degan sado keldi.

14 — Ey Parvardigori Olam — Egam, men Sen uchun ko‘p jon kuydirgan edim, — dedi Ilyos. — Isroil xalqi Sen bilan qilgan ahddan qaytdi, qurbongohlaringni buzdi, payg‘ambarlaringni qilichdan o‘tkazdi. Egamning payg‘ambarlaridan yolg‘iz men qoldim, xolos. Endi jonimni olish uchun meni ham qidirib yuribdilar.

15 Egamiz unga aytdi:

— Sen kelgan yo‘lingdan orqaga qayt. Damashq yaqinidagi sahroga bor. U yerga borganingdan keyin, Xazayilning boshiga moy surt, u Oram yurtining shohi bo‘lsin.
16 Nimshi o‘g‘li Yohuning* boshiga ham moy surt, u Isroilning shohi bo‘lsin. Ovil–Maxlalik Shofot o‘g‘li Elishayning boshiga ham moy surt, u sening o‘rningga payg‘ambar bo‘ladi. 17 Xazayilning qilichidan qochib qutulganni Yohu o‘ldiradi, Yohuning qilichidan qochib qutulganni Elishay o‘ldiradi. 18 Men Isroil xalqidan yetti ming odamni qoldiraman, ular Baal oldida tiz cho‘kmagan, birortasi ham Baalni o‘pmagan.

Elishay

19 Ilyos u yerdan ketib, Shofot o‘g‘li Elishayni topdi. U o‘n ikki juft ho‘kiz bilan yer haydayotganlarning orasida bo‘lib, o‘n ikkinchi juft ho‘kizni haydab ketayotgan edi. Ilyos Elishayning yonidan o‘tayotib, chakmonini uning ustiga tashladi*. 20 Elishay ho‘kizlarini qoldirib, Ilyosning orqasidan yugurib bordi.

— Ijozat ber, borib, ota–onamni o‘pib xayrlashib kelay, keyin orqangdan yetib boraman, — dedi u Ilyosga.

Ilyos Elishayga dedi:

— Bor, lekin men senga qilganimni o‘ylab ko‘r!

21 Elishay Ilyosning yonidan qaytib borib, o‘zining bir juft ho‘kizini so‘ydi. Omoch–bo‘yinturuqlarini yoqib, ho‘kizlarning go‘shtini pishirib, odamlarga berdi. Odamlar go‘shtni yeb bo‘lgach, Elishay Ilyosning ortidan jo‘nadi va unga xizmat qila boshladi.

20–BOB

Oram shohi bilan urush

1 Oram shohi Banhadad* butun lashkarini to‘pladi. O‘ttiz ikkita shoh o‘z otlari, jang aravalari bilan unga madad berdi. Banhadad Samariyani qamal qilib, bu shaharga urush boshladi. 2 Banhadad shaharga — Isroil shohi Axab huzuriga choparlar jo‘natib, ular orqali shu xabarni yetkazdi:

— Banhadad aytmoqda: 3 “Sening oltin–kumushlaring, eng sara xotinlaring, o‘g‘illaring meniki bo‘ladi.”

4 — Siz aytganday bo‘la qolsin, shoh hazratlari, — deb javob yo‘lladi Isroil shohi, — o‘zim ham, mening hamma narsam ham siznikidir.

5 Banhadadning choparlari yana qaytib kelib, Axabga shu xabarni yetkazdilar:

— Banhadad aytmoqda: “Oltiningni, kumushingni, xotinlaringni va bolalaringni menga berasan, deb senga xabar bergan edim. 6 Ertaga shu paytda qullarimni jo‘nataman: ular saroyingni, a’yonlaringning boshpanasini birma–bir ko‘rib chiqib, ko‘zingni quvnatib turgan qimmatbaho hamma narsalaringni olib ketadilar.”

7 Isroil shohi yurt oqsoqollarini chaqirib, ularga aytdi:

— O‘ylab bir qaranglar, u odam qanday yomonlikni o‘ylab topadi–ya. U xotinlarimni, o‘g‘illarimni, oltin–kumushlarimni so‘rab chopar jo‘natganda, men rad qilmagandim.

8 Hammalari shohga:

— Quloq solmang uning gaplariga, rozi bo‘lmang! — deb maslahat berdilar. 9 Shunda Isroil shohi Banhadadning choparlariga shu gapni aytdi:

— Shoh hazratlariga shunday deb yetkazinglar: men unga oltinimni ham, kumushimni ham, hatto xotinlarim va bolalarimni ham berishga tayyorman, lekin bundan ortig‘iga rozi emasman.

Choparlar Banhadadga Axabning shu gapini olib keldilar. 10 Banhadad Axabga yana choparlarini jo‘natib, quyidagi gapni yetkazdi:

— Samariyani yer bilan yakson qilaman, agar Samariyaning kuli orqamda yurgan mana shu odamlarimning har biriga bir hovuchdan yetib ortib qolsa, xudolar meni har qanday jazoga mubtalo qilsin, undan ham battarrog‘iga duchor qilsin.

11 Isroil shohi ham Banhadadning gaplariga munosib javob berdi:

— Aytib qo‘ying, shohingiz sovutini kiyishdan oldin emas, yechgandan keyin maqtansin.

12 Banhadad ittifoqdosh shohlar bilan chodirda kayfu safo qilib o‘tirgan edi. U Axabning gapini eshitishi bilanoq: “Shaharga hujum qilgani tayyorlaning!” deb amr berdi. Uning odamlari shu zahoti shaharni qurshab oldi. 13 O‘sha payt Isroil shohi Axabning oldiga bir payg‘ambar kelib, shu gaplarni aytdi:

— Egam shunday demoqda: “Ey Axab, anavi katta qo‘shinni ko‘ryapsanmi? Bugun o‘shalarni sening qo‘lingga beraman. Ana o‘shanda Egangiz Men ekanligimni bilasan.”

14 — Kim orqali beradi? — deb so‘radi Axab.

— Viloyat hokimlarining pahlavonlari orqali beraman, deb aytmoqda Egam, — gapida davom etdi payg‘ambar.

— Jangni kim boshlaydi? — yana so‘radi Axab.

— Sen, — dedi payg‘ambar. 15 Axab viloyat hokimlarining pahlavonlarini chaqirdi: ular 232 ta ekan. Keyin Isroil lashkarining hammasini chaqirdi, ular 7000 kishi chiqdi.

16 Peshin vaqtida Isroil lashkari hujum qilib qoldi. Banhadad va shohlar, ya’ni unga yordam berayotgan o‘ttiz ikki shoh chodirlarda ichib mast bo‘lib yotgan ekan. 17 Isroil lashkari tomonidan avval viloyat hokimlarining pahlavonlari chiqdilar. Banhadad choparlar jo‘natgan edi, choparlar: “Samariyadan odamlar chiqib kelyapti”, deb unga xabar yetkazdilar.

18 — Ularni tiriklayin ushlanglar! Sulh tuzishga kelishyaptimi, jang qilishgami, farqi yo‘q! — deb amr berdi Banhadad.

19 Viloyat hokimlarining pahlavonlari, ularning orqasidan esa lashkar shahardan chiqib kelib, 20 har bir Isroil jangchisi bittadan Oramlik dushmanini o‘ldirdi. Bundan sarosimaga tushgan Oram lashkari qochib qoldi. Isroil lashkari esa ularni quvlab ketdi. Oram shohi Banhadad ot ustida, otliqlar bilan birga qochib qutuldi. 21 Isroil shohi kelib, otlarni, jang aravalarini yakson qilib tashladi. Shunday qilib, Oram lashkari qattiq mag‘lubiyatga uchradi.

22 Shundan keyin payg‘ambar yana Isroil shohi yoniga kelib dedi:

— Bor, yana kuch to‘pla, nima qilishingni ko‘rib–bilib ol. Yanagi bahorda Oram shohi senga xavf soladi.

Banhadad yana hujum qiladi

23 Ayni paytda Oram shohiga ham a’yonlari uqtirdilar:

— Ularning xudolari — tog‘lar xudolaridir. Shuning uchun bu safar ularning qo‘li baland keldi. Agar ular bilan tekislikda jang qilsak, albatta biz g‘olib kelamiz. 24 Endi shohimiz shunday qilsinlar: hukmdorlarning hammasini vazifalaridan chetlatsinlar. Ularning o‘rniga lashkarboshilarini tayinlasinlar. 25 Qancha lashkar, ot, jang aravasi yo‘qotgan bo‘lsalar, o‘shancha lashkar, ot, jang aravalari to‘plab, qo‘shin tashkil qilsinlar. Keyin Isroil lashkari bilan tekislikda jang qilib, albatta ularni mag‘lub etamiz.

Oram shohi a’yonlarining maslahatini inobatga olib, ular aytganday qildi.
26 Keyingi yil bahorda Banhadad Isroil bilan urishish uchun otlandi. U Oram
lashkarini yig‘ib, Ofoq shahriga* olib chiqdi. 27 Isroil lashkari ham yig‘ilib, oziq–ovqat
to‘pladi. So‘ng Oram lashkari bilan jang qilish uchun jo‘nab ketdi. Isroil lashkari Oram
lashkarining ro‘parasida qarorgoh qurdi. Oram lashkari yurtni bosib ketgan, Isroil
lashkari esa ularning oldida ikkita kichkina echki galasichalik kelardi, xolos.
28 Shunda payg‘ambar Isroil shohi yoniga kelib, unga shu xabarni bayon qildi:
— Egam shunday aytmoqda: “Modomiki, Oram lashkari, Isroil xalqining Egasi
tekislik xudosi emas, tog‘lar xudosidir, deb aytayotgan ekanlar, Men mana shu katta
qo‘shinning hammasini sening qo‘lingga beraman. Shunda Egangiz Men ekanligimni
bilasizlar.”
29 Bir–biri bilan dushmanlashgan ikkala tomon yetti kun qarorgohda kutib yotdilar.
Nihoyat, yettinchi kuni jang boshlandi. Isroil lashkari bir kunda Oram lashkaridan
100.000 kishini qirib tashladi. 30 Qolganlari Ofoqqa — shahar ichkarisiga qochib kirgan
edilar, 27.000 tasini devor bosib qoldi. Banhadad ham shaharga qochib borib, bir uyning
eng ichkari xonasiga kirib oldi. 31 A’yonlari unga:
— Isroil shohlari rahmdil shohlardir, deb eshitgan edik, — dedilar. — Qani, endi
egnimizga qanor kiyib, bo‘ynimizga arqon bog‘laylik–da*, keyin Isroil shohi huzuriga
boraylik. Shoyad u sizning bir qoshiq qoningizdan kechsa.
32 Hamma a’yonlar egnilariga qanor kiyib, bo‘yinlariga arqon bog‘lab, Isroil shohi
huzuriga keldilar.
— Qulingiz Banhadad: “O‘tinaman, shoh meni o‘ldirmasin”, deb iltijo qilyapti, —
dedilar.
— U hozir tirikmi? Axir, u mening akam–ku! — dedi Axab.
33 Bu odamlar bir alomat kutayotgan edilar. Uning gapini darrov og‘zidan ilib olib:
— Ha, Banhadad — akangiz, — dedilar.
— Boringlar, uni olib kelinglar, — deb buyurdi Axab.
Banhadad Axabning yoniga keldi. Axab uni aravaga o‘tqazdi.
34 — Mening otam sening otangdan tortib olgan shaharlarni qaytarib beraman, —
dedi Banhadad Axabga. — Otam Samariyada bozorlar barpo qilgan edi, xuddi shu
singari, sen ham Damashqda o‘zing uchun bozorlar barpo qilasan.
— Sulh tuzganimizdan keyin men seni ozod qilaman, — dedi Axab ham o‘z
navbatida. U Banhadad bilan sulh tuzgach, Banhadadni ozod qildi.

Bir payg‘ambar Axabga qarshi gapiradi

35 Payg‘ambarlar guruhidan bittasi boshqasiga:
— Meni ur! — dedi. Payg‘ambar Egamizning amri bo‘yicha ish tutayotgan edi. Lekin
sherigi payg‘ambarni urishni istamadi. 36 Payg‘ambar sherigiga shunday dedi:
— Modomiki, sen Egamizning amriga quloq solmadingmi, endi ko‘rasan, yonimdan
ketishing bilanoq, seni sher g‘ajib tashlaydi.
U odam payg‘ambarning yonidan ketib, sherga duch kelib qoldi. Sher uni tilka–pora
qilib tashladi.
37 Payg‘ambar boshqa bir odamni uchratib qolib, unga ham:
— Meni ur! — dedi. U odam payg‘ambarni urib, jarohat yetkazdi. 38 Payg‘ambar
nariroq borib ko‘zlarini yopinchiq bilan to‘sib, qiyofasini o‘zgartirdi va yo‘l bo‘yida

shohni kuta boshladi. 39 Shoh o‘tib ketayotgan edi, payg‘ambar unga qarab baqirdi:
— Ey shohim, men, qulingiz, jangga borgan edim. Qarangki, orqadan bir odam mening yonimga boshqa odamni boshlab kelib: “Bu asirni mahkam ushla, qochib ketmasin, boshing bilan javob berasan yoki evaziga ikki pud* kumush berasan”, dedi.
40 Men, qulingiz, u–bu ishlar bilan mashg‘ul bo‘lib turganimda, asir g‘oyib bo‘ldi.
— Sen o‘zingga o‘zing hukm chiqarib qo‘yibsan–ku, — dedi Isroil shohi payg‘ambarga.
41 Payg‘ambar shu zahoti ko‘zidan yopinchiqni oldi. Shoh bildiki, u payg‘ambarlardan biri ekan. 42 Payg‘ambar shohga dedi:
— Egamiz shunday aytmoqda: “Modomiki, Men o‘limga mahkum etgan odamni sen qo‘lingdan chiqarib yuborgan ekansan, uning joni evaziga sening joningni olaman, uning xalqi o‘rniga sening xalqingni jazolayman.”
43 G‘azablangan Isroil shohi xafahol uyiga jo‘nab, Samariyaga yetib keldi.

21–BOB

Navo‘tning uzumzori

1 Voqealar ketidan voqealar yuz beraverdi.
Yizril shahrida, Samariya shohi Axabning saroyi yonida shu yerlik Navo‘t degan odamning uzumzori bor edi.
2 — Uzumzoringni menga ber, men u yerni poliz qilaman, — dedi Axab Navo‘tga. — Uzumzoring mening uyimga yaqin. O‘sha joyning o‘rniga men senga undan ham yaxshiroq uzumzor beraman. Istasang, bahosini ayt, kumush berayin.
3 — Otalarimdan qolgan merosni* sizga beramanmi?! Xudo saqlasin, — deb javob qaytardi Navo‘t Axabga.
4 Yizrillik Navo‘tning: “Otalarimdan qolgan merosni sizga beramanmi?!” degan gapidan Axab g‘azablandi, xafahol uyiga keldi. Non ham yemay o‘ringa kirib, teskari qarab yotaverdi. 5 Xotini Izabel Axabning yoniga kelib, undan: “Nega ruhingiz tushkun, non ham yemadingiz?” deb so‘radi. 6 Axab bo‘lib o‘tgan voqeani aytib berdi:
— Yizrillik Navo‘tga: “Uzumzoringni menga sot, kumush beraman, yoki istasang uning o‘rniga senga boshqa uzumzor beray”, desam, u: “Uzumzorimni sizga bermayman”, deb javob qildi.
7 — Siz Isroil shohimisiz o‘zi?! — dedi Izabel Axabga. — Turing o‘rningizdan, non–pon yeb oling. Ko‘nglingizni chog‘ qilavering. Yizrillik Navo‘tning uzumzorini sizga men olib beraman.
8 Izabel Axab nomidan maktublar yozdi, Axabning muhri bilan tasdiqladi. Maktublarni Navo‘t yashayotgan shaharning oqsoqollariga, aslzodalariga yubordi.
9 Maktub quyidagi mazmunda bitilgan edi:

> “Ro‘za e’lon qilinglar. Xalqni to‘plab, Navo‘tni to‘rga — hammaga ko‘rinadigan joyga o‘tqazib qo‘yinglar. 10 Uning ro‘parasiga esa ikkita yaramas odam o‘tirsin. Ular: «Ey Navo‘t, sen Xudoni va shohni haqorat qilding», deb Navo‘tni ayblasinlar. Keyin uni tashqariga olib chiqib, toshbo‘ron qilib o‘ldiringlar.”

11 Navo‘t istiqomat qiladigan shahardagi odamlar, aslzodalar va oqsoqollar

hammasini Izabel buyurganiday qildilar. 12 Avval roʻza e’lon qildilar. Keyin xalqni toʻplab, Navoʻtga toʻrdan joy berdilar. 13 Ikkita* yaramas odam kelib, Navoʻtning roʻparasiga oʻtirdi. Ular xalqning oldida: “Navoʻt Xudoni va shohni haqorat qildi*”, deb Navoʻtga ayb qoʻyishdi. Shundan soʻng Navoʻtni shahar tashqarisiga olib chiqib, toshboʻron qilib oʻldirdilar.

14 Oqsoqollar va aslzodalar: “Navoʻt toshboʻron qilib oʻldirildi”, deb Izabelga xabar berdilar.

15 Izabel Navoʻtning toshboʻron qilib oʻldirilganini eshitgan zamon Axabga dedi:

— Yizrillik Navoʻt uzumzorini sizga kumushga ham sotmagan edi. Boring endi, uning oʻsha uzumzorini oʻzingizning mulkingizga qoʻshib oling. Navoʻt endi yoʻq. U oʻlibdi.

16 Axab Navoʻtning oʻldirilganini eshitdi–yu: “Tezroq borib, Yizrillik Navoʻtning uzumzorini oʻzimga mulk qilib olay”, deb harakatga tushdi.

17 Oʻsha payt Tishba shahridan boʻlgan Ilyosga Egamiz shu soʻzlarni ayon qilgan edi: 18 “Bor, Samariyada oʻtirgan Isroil shohi Axabni kutib olish uchun chiq. U hozir Navoʻtning uzumzorida, oʻsha uzumzorni oʻziga mulk qilib olmoqchi boʻlib, u yerga keldi. 19 Axabga shu gaplarni yetkaz: «Egam shunday aytmoqda: Navoʻtni oʻldirib, uning mulkini oʻzingga olmoqchimisan?! Navoʻtning qonini koʻppaklar yalagan yerda sening qoningni ham koʻppaklar yalaydi.»”

20 — Ha, dushmanim, meni bu yerga ham topib keldingmi? — dedi Axab Ilyosga.

— Ha, topib keldim, — dedi Ilyos, — sen Egamiz oldida qabihliklarga rosa mukkangdan ketding. 21 Egamizning gapi shunday: “Boshingga balo yogʻiraman, seni ildizingdan quritaman. Isroildagi senga qarashli erkak zotini, xoh qul boʻlsin, xoh ozod boʻlsin, qirib tashlayman. 22 Isroilni gunohga botirib, Men, Egangni gʻazablantirganing uchun sening xonadoningni Nabat oʻgʻli Yeribomning xonadoni koʻyiga, Oxiyo oʻgʻli Bashoning xonadoni koʻyiga solaman.” 23 Egamiz Izabel haqida ham aytdi: “Yizril devori ichkarisida Izabel koʻppaklarga yem boʻlar.” 24 Ey Axab, xonadoningdan boʻlgan odam shaharda oʻlsa koʻppaklarga yem boʻlar, qirda oʻlsa koʻkdagi qushlarga yem boʻlar.

25 Shu paytgacha hech kim Axab singari, Egamiz oldida qabihliklarga mukkasidan ketmagan edi. Xotini Izabel esa uni gijgijlab turar edi. 26 Axab, Amor xalqi singari, butlarga ergashib, koʻp qabihliklar qilgan edi. Amor xalqini esa gunoh ishlari uchun Egamiz u yurtdan haydab, yurtni Isroil xalqiga bergan edi.

27 Axab Ilyosning aytganlarini eshitib, qaygʻudan kiyimlarini yirtdi, qanor kiyib oldi va roʻza tutdi*. Hatto uxlaganda ham qanorni yechmadi, doimo gʻamgin yurdi.
28 Shundan keyin Ilyosga Egamiz shu soʻzlarni ayon qildi: 29 “Koʻrdingmi, Axab tavba qilib, Mening oldimda qanday moʻmin boʻlib qoldi! U Menga itoat qilgani uchun hayoti davomida boshiga balo keltirmayman. Oʻgʻli shoh boʻlgandan soʻng, uning xonadoniga balo–qazo yogʻiraman.”

22–BOB

Mixiyo Axabni ogohlantiradi

1 Oradan uch yil oʻtdi. Shu vaqt oraligʻida Oram bilan Isroil oʻrtasida urush boʻlmadi.
2 Uchinchi yili Yahudo shohi Yohushafat Isroil shohi huzuriga keldi. 3 Isroil shohi a’yonlariga dedi:

— Giladdagi* Ramoʻt bizniki ekanini bilasizlarmi? Lekin biz bu shaharni uzoq

vaqtdan buyon Oram shohidan tortib olmay, sukut saqlab kelyapmiz.
4 — Giladdagi Ramoʻt uchun jang qilmoqqa men bilan borasanmi? — deb soʻradi
Axab Yohushafatdan.
— Meni goʻyo oʻzing deb bil, xalqimni oʻzingning xalqing deb, otlarimni oʻzingning
otlaring deb bil, — dedi unga Yohushafat. 5 Yohushafat Isroil shohiga yana aytdi:
— Avval Egamizning xohish–irodasini bil–chi, U nima der ekan.
6 Isroil shohi toʻrt yuzga yaqin paygʻambarni toʻplab ulardan soʻradi:
— Giladdagi Ramoʻt uchun jang qilmoqqa boraymi yoki bormaymi?
— Boraversinlar, Rabbiy u shaharni shoh hazratlarining qoʻliga beradi.
7 — Bu yerda ulardan boshqa Egamizning birorta paygʻambari qolmadimi? Agar
boʻlsa, undan ham soʻrab koʻraylik, — dedi Yohushafat.
8 — Yana bir kishi bor, — dedi Axab Yohushafatga, — Yimloning oʻgʻli Mixiyo. U
orqali Egamizning xohish–irodasini bilsak boʻladi. Lekin men uni yomon koʻraman,
chunki u men haqimda bashorat qilsa, xayrli gap aytmaydi, har doim xunuk gap aytadi.
— Ey shoh, bunday deb aytma, — dedi Yohushafat. 9 Isroil shohi mulozimini
chaqirib:
— Tez borib, Yimloning oʻgʻli Mixiyoni olib kel, — deb buyurdi.
10 Isroil shohi Axab va Yahudo shohi Yohushafat shohlik liboslarini kiyib, har qaysisi
oʻz taxtida Samariya darvozasi yonidagi bugʻdoy yanchiladigan maydonda oʻtirar,
hamma paygʻambarlar esa ularning roʻparasida turib bashorat qilayotgan edi. 11 Xanano
oʻgʻli Zidqiyo temir shoxlar yasab, dedi:
— Egamiz: “Oram lashkarini qirib bitirmaguningcha, ularni shu shoxlar bilan
suzaverasan”, deb aytmoqda.
12 Boshqa paygʻambarlar ham shohga:
— Ramoʻtga boraversinlar, albatta gʻalaba qiladilar, Egamiz oʻsha shaharni
shohimizning qoʻllariga beradi, — deb bashorat qildilar.
13 Mulozim Mixiyoni chaqirish uchun ketdi. U Mixiyoning oldiga borib, unga dedi:
— Qara, hozir hamma paygʻambarlar bir ogʻizdan shohga yaxshilikdan bashorat
qilyaptilar. Sening bashorating ham ularnikiday boʻlsin. Sen ham yaxshilikdan karomat
qil.
14 — Xudo haqi! Egamiz menga nimani ayon qilsa, shuni aytaman, — dedi Mixiyo.
15 Mixiyo shoh huzuriga keldi.
— Ey Mixiyo, men Giladdagi Ramoʻt shahrini qaytarib olish uchun jang
qilmoqchiman. Ramoʻtga hujum qilaymi yoki yoʻqmi? — deb soʻradi shoh undan.
— Hujum qilaversinlar, albatta gʻolib keladilar, — dedi Mixiyo. — Egamiz oʻsha
shaharni shoh hazratlarining qoʻliga beradi.
16 — Faqat haqiqatni aytishing uchun Egamiz nomini oʻrtaga qoʻyib, senga necha
marta ont ichdirayin?! — deb shoh undan yana soʻradi.
17 Mixiyo unga shunday javob berdi:
— Isroil xalqini koʻrib turibman, ular togʻlar ustida yoyilib yurgan choʻponsiz
qoʻylarga oʻxshaydi. Egamiz menga dedi: “Ularning xoʻjayini yoʻq, har biri oʻz uyiga
tinch–omon qaytib ketsin.”
18 — U men haqimda bashorat qilganda xayrli gap aytmaydi, balki xunuk xabar
aytadi, deb senga aytmaganmidim?! — deb xafaligini izhor qildi Axab Yohushafatga.
19 — Unday boʻlsa, Egamizning soʻzlarini eshitsinlar, — dedi Mixiyo Axabga. — Men

Egamizni O‘zining taxtida o‘tirgan holatda ko‘rdim. Jamiki samoviy mavjudotlar Uning o‘ng va chap tomonidan joy olgan edi. 20 Egamiz ulardan so‘radi: “Axab Giladdagi Ramo‘t shahriga borib, o‘sha yerda halok bo‘lsin deya, kim uni o‘ziga og‘dira oladi?” Biri unday dedi, boshqasi bunday dedi. 21 Bir payt ruhlardan bittasi Egamizning ro‘parasida paydo bo‘ldi va: “Uni men ko‘ndiraman”, dedi. 22 “Qanday qilib ko‘ndirasan?” so‘radi Egamiz. “Men chiqib, hamma payg‘ambarlarning og‘zida yolg‘onchi ruhga aylanaman”, dedi u. “Sen uni ko‘ndir, bor, aytganingday qil, sen uddasidan chiqasan”, dedi Egamiz. 23 Mana ko‘rdingizmi, Egamiz hamma payg‘ambarlaringizning og‘ziga yolg‘onchi ruh solib qo‘ygan. U boshingizga falokat keltirishga qaror qilgan.

24 Shu payt Xanano o‘g‘li Zidqiyo Mixiyoning oldiga kelib, uning yuziga bir shapaloq urdi:

— Nahotki Egamizning Ruhi meni tark etib, sen bilan gaplashgani ketgan bo‘lsa?! Ayt–chi, u qaysi yo‘ldan ketdi? — so‘radi Zidqiyo.

25 — Qarab tur, sichqonning ini ming tanga bo‘lib, yashiringani ichkari xonaga yugurganingda ko‘rasan, — dedi Mixiyo Zidqiyoga.

26 — Mixiyoni ushlanglar! — buyurdi Isroil shohi. — Uni shahar hokimi Omonning va shahzoda Yo‘shning huzuriga olib boringlar. 27 Ularga mening amrimni yetkazinglar. Ular Mixiyoni zindonga tashlashsin. Men sog‘–salomat qaytib kelgunimcha, oz–moz non–suv berib tursin, xolos.

28 — Ey xaloyiq! Hammangiz eshitib qo‘ying! Agar shoh hazratlari sog‘–salomat qaytib kelsalar, Egamiz men orqali gapirmagan bo‘ladi, — dedi Mixiyo.

Axabning o‘limi

29 Isroil shohi Axab bilan Yahudo shohi Yohushafat Giladdagi Ramo‘t shahriga ketishdi.

30 — Men qiyofamni o‘zgartirib, jangga kiraman, sen esa shohlik liboslaringni kiyib ol, — dedi Axab Yohushafatga.

Axab qiyofasini o‘zgartirib, jangga kirdi. 31 Oram shohi o‘ttiz ikkita jang aravalari qo‘mondoniga: “Kattasi bilan ham, kichigi bilan ham jang qilib o‘tirmanglar, asosiy hujumni Isroil shohining o‘ziga qaratinglar”, deb amr bergan edi. 32 Jang aravalari qo‘mondonlari Yohushafatni ko‘rgach: “Isroil shohi ana shu!” deb o‘ylab unga hujum boshladilar. Lekin Yohushafat jangga da’vat qilib baqirganda, 33 aravalarning qo‘mondonlari bildilarki, u Isroil shohi emas ekan. Qo‘mondonlar orqaga qaytdilar.
34 Bir odam bexosdan yoyini tortib qo‘yib yuborgan edi, o‘q to‘ppa–to‘g‘ri Isroil shohiga kelib tegdi. Shohning ustidagi sovuti ulangan joydan o‘q kirib ketgan ekan. Shoh og‘ir jarohatlandi.

— Otni orqaga bur, men jarohatlandim, lashkar orasidan meni olib chiqib ket! — dedi shoh izvoshchisiga.

35 O‘sha kuni g‘oyatda shiddatli jang bo‘ldi. Shoh esa aravasi ustida suyanib Oram lashkarini kuzatib turdi. O‘q tekkan joydan aravaning ichiga qon oqardi. Kechga tomon borib shoh qazo qildi. 36 Kunbotar paytida lashkar orasida: “Har kim o‘z shahriga, o‘z yurtiga ketaversin!” degan ovoza tarqaldi.

37 Shohning jasadini Samariyaga olib kelib, o‘sha yerda dafn qildilar. 38 Aravani esa Samariyadagi hovuzda yuvdilar. Fohishalar ham shu yerda yuvinishardi. Egamizning aytgani* bo‘ldi: ko‘ppaklar uning qonini yaladi.

39 Axabning boshqa ishlari, butun faoliyati, fil suyagidan qurgan saroyi, hamma
mustahkam qilgan shaharlari haqida “Isroil shohlari tarixi” kitobida yozilgan. 40 Axab
olamdan o‘tdi. Uning o‘rniga o‘g‘li Oxoziyo shoh bo‘ldi.

Yahudo shohi Yohushafat

41 Isroil shohi Axab shohlik qilayotganiga to‘rt yil bo‘lganda, Yohushafat Yahudoga
shoh bo‘lgan edi. Yohushafat Osoning o‘g‘li edi. 42 O‘shanda Yohushafat o‘ttiz besh
yoshda edi. U Quddusda yigirma besh yil shohlik qildi. Onasi Oziba Shilxining qizi edi.
43 Yohushafat otasi Osoning yo‘lidan yurdi. Yo‘ldan ozmay, Egamiz oldida to‘g‘ri
ishlar qildi. Lekin sajdagohlarni yo‘q qilib tashlamadi. Xalq hamon o‘sha joylarda
qurbonlik qilib, tutatqi tutatardi. 44 Yohushafat Isroil shohi bilan sulh tuzdi.
45 Yohushafatning boshqa ishlari, ko‘rsatgan qahramonliklari, qanday jang qilgani
“Yahudo shohlari tarixi” kitobida yozilgan. 46 Otasi Oso davridan qolgan–qutgan
sajdagohlardagi fohishlarni* Yohushafat yurtdan quvib chiqardi.
47 Bu paytda Edomda shoh yo‘q edi, shohning noibi yurtni boshqarardi.

Yohushafatning kemalari

48 Yohushafat: “Ofirdan oltin olib kelaman” deb, dengizda savdo kemalari yasadi,
lekin Ezyo‘n–Geberga* borganda, kemalar parchalanib, Ofirga yeta olmadi. 49 O‘shanda
Isroil shohi Oxoziyo Yohushafatga: “Mening odamlarim sening odamlaring bilan birga
kemada ketsin”, degan, lekin u rozi bo‘lmagan edi.
50 Yohushafat olamdan o‘tdi. U ham bobosi Dovud qal’asida, ota–bobolari yoniga
dafn qilindi. Uning o‘rniga o‘g‘li Yohuram shoh bo‘ldi.

Isroil shohi Oxoziyo

51 Yohushafat Yahudoda shohlik qilayotganiga o‘n yetti yil bo‘lganda, Oxoziyo
Isroilga shoh bo‘ldi. Oxoziyo Axabning o‘g‘li edi. U Samariyada istiqomat qilardi. U ikki
yil Isroil shohi bo‘ldi. 52 Oxoziyo Egamiz oldida qabih ishlar qildi. Ota–onasining yo‘lidan,
Isroilni gunohga botirgan Nabat o‘g‘li Yeribomning yo‘lidan ketdi. 53 Oxoziyo Baalga
xizmat qilib, unga topindi. Isroil xalqining Xudosi — Egamiz uning qilmishlaridan qattiq
g‘azablandi. Binobarin, otasi ham Egamizning qahrini keltirgan edi.

IZOHLAR

1:1 *...ancha qarib qoldi* — taxminan 70 yoshlarda edi.

1:3 *Shunam* — Jalila ko‘lining janubiy qirg‘og‘idan qariyb 26 kilometr janubi–sharqda joylashgan shahar.

1:5 *“Men shoh bo‘laman”* — Absalomning o‘limidan keyin Dovudning to‘ng‘ich o‘g‘li bo‘lib qolgan Odoniyo taxtga da’vogar edi. O‘sha davr odatiga ko‘ra to‘ng‘ich o‘g‘illar taxt vorisi bo‘lishardi.

1:9 *En–Ro‘g‘ol bulog‘i* — Quddusdan janubi–sharqda, Qidron soyligida joylashgan.

1:9 *...qurbonlik qilib...taklif qildi* — Odoniyo taxtga da’vogarligini bayram qilib nishonlagan.

1:33 *Gixo‘n bulog‘i* — En–Ro‘g‘ol bulog‘ining yaqinida, buloqning shimolida joylashgan (shu bobning 9, 41–oyatlariga qarang). Bu buloq Quddusning asosiy suv manbai edi.

1:35 *Isroil va Yahudo* — bu oyatda “Isroil” degan nom shimoliy qabilalardan tashkil topgan xalqqa nisbatan ishlatilgan, “Yahudo” nomi esa janubiy qabilalardan tashkil topgan xalqqa nisbatan ishlatilgan. Dovudning o‘g‘li Sulaymon ham, Dovud singari, barcha qabilalar ustidan hukmronlik qilgan.

1:38 *Xaretlik va Palatlik qo‘riqchilar* — Dovud yollagan bu muhojir sipohlar shohning shaxsiy qo‘riqchilari bo‘lib xizmat qilgan.

1:39 *chodir* — Quddusda Ahd sandig‘ini vaqtincha qoldirish uchun Dovud o‘rnashtirgan chodir (2 Solnomalar 1:2-6 ga qarang). Bu paytda Quddusdagi Ma’bad hali qurilmagan, Muqaddas chodir Givondagi sajdagohda edi.

1:39 *qo‘chqor shoxi* — hayvonning ishlov berilgan shoxlaridan ba’zan idish sifatida foydalanilgan.

1:50 *...qurbongohning burchagidan mahkam ushlab oldi* — qurbongohning to‘rtala burchagining uchi hayvon shoxi shaklida yasalgan edi. Qurbongoh muqaddas hisoblangani uchun, uning shoxini ushlab turgan odamni o‘ldirib bo‘lmas edi.

2:5 *U Isroilning ikkita lashkarboshisini...qon to‘kdi* — 2 Shohlar 3:22-27, 20:7-10 ga qarang.

2:6 *o‘liklar diyori* — ibroniycha matnda *Sheo‘l*. Qadimda Isroil xalqi *Sheo‘l*ni yer ostidagi tubsiz chuqurlik, marhumlar boradigan qorong‘i joy deb tushunardi.

2:7 *Chunki...ular mening oldimda hoziru nozir bo‘lishdi* — 2 Shohlar 17:27-29 ga qarang.

2:8 *Moxanayimga qochib o‘tayotganimda, u meni yomon qarg‘agan edi* — 2 Shohlar 16:5-13 ga qarang.

2:8 *Lekin keyinroq...ont ichib, unga: “Seni o‘ldirmayman”, degan edim* — 2 Shohlar 19:16-23 ga qarang.

2:15 *...men shoh bo‘lishim kerak edi* — Odoniyo Sulaymondan katta edi (shu bobning 22–oyatiga qarang).

2:19 *shohning o‘ng tomoni* — o‘ng tomon muruvvat va baraka o‘rni deb hisoblangan.

2:26 *Onoto‘t* — Quddusdan qariyb 5 kilometr shimoli–sharqda joylashgan levilarga

qarashli shahar (Yoshua 21:1-3, 18 ga qarang).

2:27 *Shunday qilib, Egamizning…aytgan so‘zlari bajo bo‘ldi* — 1 Shohlar 2:27-36 ga qarang. Abuatar Elaxning kichik o‘g‘li Finxazning evarasi edi.

2:28 *…qurbongohning burchagidan ushlab oldi* — 1:50 izohiga qarang.

2:32 *Abnur…Emosa* — 2 Shohlar 3:22-27, 20:7-10 ga qarang.

2:37 *Qidron soyligi* — Quddus shahridan sharqda joylashgan.

2:39 *Gat* — O‘rta yer dengizi bo‘yida joylashgan bu shahar Filistlarning beshta asosiy shahridan biri edi.

3:2 *sajdagoh* — ibroniycha matnda *bamax*, ya’ni “tepalik”. Kan’on xudolariga topinadigan joylar *bamax* deb atalardi. Odatda bu sajdagohlar tepaliklarda joylashgan bo‘lib, u yerda Kan’on xudolarining tasvirlari va qurbonliklar keltirish uchun qurbongoh bo‘lardi. Ba’zi bir paytlarda odamlar mana shu mahalliy sajdagohlarda Egamizga sajda qilardilar.

3:4 *Givon* — Quddusdan qariyb 6 kilometr shimoli–g‘arbda joylashgan shahar. O‘sha davrda Muqaddas chodir Quddusda joylashgan edi (2 Solnomalar 1:2-6 ga qarang).

3:15 *Egamizning Ahd sandig‘i* — o‘sha davrda Ahd sandig‘i Quddus shahrida, Dovud tomonidan o‘rnatilgan maxsus chodirda saqlanar edi (2 Shohlar 6:12-17 ga qarang).

4:11 *Nafo‘t–Do‘r* — ibroniycha matnda bu nomning boshqa varianti *Nafat–Do‘r*.

4:19 *Yahudo yurtining o‘z hukmdori bor edi* — qadimiy yunoncha tarjimadan. Ibroniycha matnda *Yahudo* so‘zi yo‘q.

4:22 *300 tog‘ora* — ibroniycha matnda *30 kor*, taxminan 6,6 tonnaga to‘g‘ri keladi.

4:22 *600 tog‘ora* — ibroniycha matnda *60 kor*, taxminan 13 tonnaga to‘g‘ri keladi.

4:26 *4000* — qadimiy yunoncha tarjimadan (yana 2 Solnomalar 9:25 ga qarang). Ibroniycha matnda *40.000*.

4:28 *…shoh tayinlagan yerga…* — yoki *…shoh Sulaymon turgan joyga….*

5:1 *Tir* — Finikiyada muhim ahamiyatga ega bo‘lgan shahar. Bu shahar Isroildan shimolda, O‘rta yer dengizi bo‘yida joylashgan edi. Bugungi kunda bu yer Livan mamlakatining janubiy hududini tashkil qiladi.

5:1 *Xiram Dovudni doimo o‘ziga do‘st deb bilardi* — 2 Shohlar 5:11-12 ga qarang.

5:9 *sol* — bir–biriga bog‘lanib, daryoda oqiziladigan yog‘ochlar. Yog‘ochni uzoq masofaga olib borish uchun eng qulay usul sol oqizish bo‘lgan.

5:11 *200.000 tog‘ora* — ibroniycha matnda *20.000 kor*, taxminan 4400 tonnaga to‘g‘ri keladi.

5:11 *40.000 ko‘za* — qadimiy yunoncha tarjimadan. O‘sha tarjimada *20.000 bat* deb yozilgan, taxminan 440.000 litrga to‘g‘ri keladi (yana 2 Solnomalar 2:10 ga va o‘sha oyatning ikkinchi izohiga qarang). Ibroniycha matnda *20 kor*, taxminan 4400 litrga to‘g‘ri keladi.

5:18 *Gabol* — O‘rta yer dengizi bo‘yidagi Finikiyaga qarashli shahar bo‘lib, Sidon shahridan shimolda joylashgan edi.

6:1 *...Sulaymon Isroil taxtiga o‘tirganiga to‘rt yil bo‘lgan edi* — taxminan miloddan oldingi 960 yil.

6:1 *Ziv oyi* — ibroniy kalendarining ikkinchi oyi. Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan aprelning o‘rtasidan boshlanadi.

6:2 *tirsak* — bir tirsak taxminan 45 santimetrga to‘g‘ri keladi. Shoh Sulaymon qurdirgan Ma’badning rasmi lug‘atdan keyin ilova qilingan “Rasmlar va loyihalar” bo‘limida berilgan.

6:3 *asosiy xona* — ya’ni Muqaddas xona.

6:20 *Sadr yog‘ochidan yasalgan tutatqi qurbongohini ham oltin bilan qoplatdi* — yoki *Tutatqi qurbongohini sadr yog‘ochi bilan qoplatdi*.

6:23 *ikkita karub* — qanotli samoviy mavjudotlarning haykallari. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi KARUB, KARUBLAR so‘ziga qarang.

6:31 *kesaki* — eshik o‘rnatilgan chorcho‘p.

6:37 *Ziv oyi* — shu bobning 1–oyatiga berilgan ikkinchi izohga qarang.

6:38 *Bul oyi* — ibroniy kalendarining sakkizinchi oyi. Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan oktabrning o‘rtasidan boshlanadi.

7:2 *“Lubnon o‘rmoni” degan uy* — saroydagi tantanalar o‘tkaziladigan katta zal. Zal Lubnon tog‘laridagi o‘rmondan keltirilgan sadr taxtalari bilan qoplangani uchun shunday deb nomlangan bo‘lishi mumkin.

7:2 *tirsak* — bir tirsak taxminan 45 santimetrga to‘g‘ri keladi.

7:5 *kesaki* — eshik o‘rnatilgan chorcho‘p.

7:18 *anor* — qadimgi paytlarda hayot ramzi edi.

7:21 *Yoxin* — bu nom ibroniychadagi *U* (ya’ni Xudo) *asos solgan* iborasiga ohangdosh.

7:21 *Bo‘az* — bu nom ibroniychadagi *Uning* (ya’ni Xudoning) *kuchi vositasida* iborasiga ohangdosh.

7:26 *4000 ko‘za* — ibroniycha matnda *2000 bat*, taxminan 44.000 litrga to‘g‘ri keladi.

7:34 *kashak* — imorat va boshqa qurilish ishlarida tik yoki yotqizib qo‘yilgan yog‘ochni qimirlamaydigan qilib mustahkamlash uchun qoqib qo‘yiladigan yog‘och, tirgovuch.

7:38 *80 ko‘za* — ibroniycha matnda *40 bat*, taxminan 880 litrga to‘g‘ri keladi.

7:48 *muqaddas nonlar* — bu nonlar Ma’badda Egamizning huzurini aks ettiruvchi timsol bo‘lib, Xudo Isroil xalqining qudrati va ta’minlovchisi ekanligidan darak berib turgan. Nonlar Ma’baddagi maxsus xontaxtaga qo‘yilib, har Shabbat kuni yangi pishirilgan nonlar bilan almashtirib turilgan (Levilar 24:5-9 ga qarang).

8:1 *...Dovud qal’asidan...* — 2 Shohlar 6:12-17 ga qarang.

8:2 *Yetanim oyi* — ibroniy kalendarining yettinchi oyi. Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan sentabrning o‘rtasidan boshlanadi.

8:2 *Chayla bayrami* — bu bayram kuzda yig‘im–terim tugagan paytga to‘g‘ri keladi.

8:4 *Uchrashuv chodiri* — Muqaddas chodirning yana bir nomi. O‘sha davrda Uchrashuv chodiri Quddusdan qariyb 6 kilometr shimoli–g‘arbda — Givonda joylashgan edi

(2 Solnomalar 1:2-6 ga qarang). Ahd sandig‘i esa Quddus shahrida, Dovud tomonidan o‘rnatilgan maxsus chodirda saqlanar edi (2 Shohlar 6:12-17 ga qarang).

8:8 *...bugungacha...* — shu kitob yozilgan vaqtga ishora.

8:9 *Sinay tog‘i* — ibroniycha matnda *Xorev tog‘i*, Sinay tog‘ining yana bir nomi.

8:16 *Egamiz otamga shunday degan edi...* — 2 Shohlar 7:1-16 ga qarang.

8:37 *garmsel* — hosilga katta ziyon keltiradigan issiq shamol.

8:37 *chigirtka* — ba’zan to‘da–to‘da bo‘lib kelib, dalalardagi hosilga katta zarar yetkazadigan hasharot.

8:65 *Levo–Xomat* — yoki *Xomat dovoni*.

8:65 *Misr chegarasidagi irmoq* — Sinay yarim orolining shimoli–sharqidagi Arish soyligi yoki Nil daryosining sharqiy irmog‘i nazarda tutilgan (yana Ibtido 15:18, Sahroda 34:5 va Yoshua 13:3, 15:4, 47 ga qarang).

8:65 *Chayla bayrami* — shu bobning 2–oyatiga berilgan ikkinchi izohga qarang.

8:66 *Chayla bayramidan keyin...* — ibroniycha matnda *Sakkizinchi kunida...*, Chayla bayramining yettinchi kunidan keyingi birinchi kun.

9:2 *...ilgari Givonda zohir bo‘lganiday...* — 3:5-6 ga qarang.

9:5 *Otang Dovudga...va’da bergan edim* — 2 Shohlar 7:12-16 ga qarang.

9:13 *Kavul* — bu so‘z ibroniychadagi *kebal*, ya’ni *qadrsiz* so‘zi kabi talaffuz qilingan.

9:14 *250 pud* — ibroniycha matnda *120 talant*, taxminan 4 tonnaga to‘g‘ri keladi.

9:15 *Quddusning sharq tomonidagi Millo* — Quddus shahri tepalik ustida edi. Bu tepalikning sharq tomoni o‘pirilib ketgani uchun uni tuzatish shart bo‘lgan. Tepalikning o‘pirilib ketgan joyi tuproq bilan to‘ldirilgan, kengaytirilgan va mustahkamlangan edi. Tepalikning bu qismi Millo deb atalardi.

9:18 *Tamar* — ibroniycha matndan. Ba’zi ibroniy qo‘lyozmalarida *Tadmo‘r*.

9:21 *...bugungacha...* — shu kitob yozilgan vaqtga ishora.

9:22 *akobir* — shoh saroyidagi yuqori martabali odam, amaldor.

9:24 *Quddusning sharq tomonidagi Millo* — shu bobning 15–oyati izohiga qarang.

9:26 *Qizil dengiz* — ibroniycha matnda *Yom–Suf*, ma’nosi *Qamish dengizi*. Bu oyatdagi mana shu nom hozirgi Aqaba qo‘ltig‘iga (ya’ni Qizil dengizning shimoli–sharqidagi qo‘ltig‘iga) ishora qiladi.

9:28 *Ofir yurti* — Arabiston yarim orolining janubida joylashgan bo‘lishi mumkin. Ofir oltini eng sifatli oltin hisoblangan.

9:28 *900 pud* — ibroniycha matnda *420 talant*, taxminan 14 tonnaga to‘g‘ri keladi.

10:1 *Shava* — bu yurt Arabiston yarim orolining janubi–g‘arb tomonida bo‘lgani ehtimoldan holi emas.

10:5 *soqiy* — shohga o‘z qo‘li bilan sharob quyadigan, saroyda yuqori martabaga ega bo‘lgan, ishonchga loyiq a’yon. Shuningdek, u shoh uchun sharob tanlashi va uni tatib ko‘rib, zaharli emasligiga ishonch hosil qilishi kerak edi.

10:5 *bakovul* — saroyda shoh uchun tayyorlanadigan maxsus taomni tatib koʻruvchi va ovqat tayyorlash ishlarini nazorat qiluvchi mansabdor shaxs.

10:10 *250 pud* — ibroniycha matnda *120 talant*, taxminan 4 tonnaga toʻgʻri keladi.

10:14 *1425 pud* — ibroniycha matnda *666 talant*, taxminan 23 tonnaga toʻgʻri keladi.

10:16 *yarim pud* — ibroniycha matnda *olti yuz shaqal*, taxminan 8,5 kiloga toʻgʻri keladi.

10:17 *400 misqol* — ibroniycha matnda *3 mina*, taxminan 1,7 kiloga toʻgʻri keladi.

10:17 *"Lubnon oʻrmoni" degan uyi* — 7:2 ning birinchi izohiga qarang.

10:22 *turli–tuman maymunlar* — yoki *maymunlar va tovuslar*.

10:27 *shikamora–anjir daraxti* — anjirning qadimgi Yaqin Sharqda keng tarqalgan bir turi. Kattaligi yongʻoq daraxtiday, barglari esa tut barglariga oʻxshash boʻlib, yil davomida bir necha bor hosil beradigan sersoya daraxt.

10:28 *Misr* — yoki *Muzur*, Quvega yondosh boʻlgan hudud (shu bobning 29–oyatida ham bor). Bu ikkala hudud hozirgi Turkiyaning janubi–gʻarbida joylashgan boʻlib, shoh Sulaymon davrida yilqichilikning markazi edi.

10:29 *600 kumush tanga* — ibroniycha matnda *600 shaqal kumush*, taxminan 7 kiloga toʻgʻri keladi.

10:29 *150 kumush tanga* — ibroniycha matnda *150 shaqal kumush*, taxminan 1,7 kiloga toʻgʻri keladi.

11:3 *kanizak* — ibroniycha matnda bu soʻzning ma'nosi quyidagicha: choʻri boʻlgan bu ayollar qonuniy xotin boʻlmasalar–da, xoʻjayinlari ular bilan jinsiy aloqada boʻlishgan. Qadimgi paytlarda bu ayollarning jiddiy qonuniy huquqlari boʻlib, xoʻjayinlari ularning erlari sifatida boʻlgan.

11:5 *Moʻlax* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Milkom* (shu bobning 33–oyatida ham bor).

11:13 *bitta qabila* — shu bobning 32–oyati izohiga qarang.

11:24 *Dovud Zoʻvoliklarni qirgach…* — 2 Shohlar 8:3-6 ga qarang.

11:26 *Zarido shahri* — Quddusdan qariyb 45 kilometr shimoli–gʻarbda joylashgan.

11:27 *Quddusning sharq tomonidagi Millo* — 9:15 izohiga qarang.

11:28 *Yusuf qabilasi* — bu yerda Efrayim va Manashe qabilalari haqida aytilgan. Ular Yusufning ikkala oʻgʻlining avlodlari edi.

11:31 *oʻnta qabila* — quyidagi qabilalarga ishora: Ruben, Shimoʻn, Dan, Naftali, Gad, Osher, Issaxor, Zabulun, Efrayim va Manashe. Yusufning ikki oʻgʻlidan kelib chiqqan Efrayim va Manashe qabilalari alohida–alohida qabilalar hisoblangan, ularning oʻziga qarashli yerlari boʻlgan (Yoshua 17:14-18 ga qarang). Levi qabilasiga esa yer ulush qilib berilmagan (Yoshua 13:14, 33, 14:3-4 ga qarang). Shimoʻn qabilasiga berilgan yer Yahudo qabilasi hududida joylashgan edi (Yoshua 19:1-9 ga qarang). Shohlar davriga kelib, Shimoʻn qabilasiga qarashli yerlar Yahudo qabilasining yerlariga qoʻshilib ketgan edi. Shimoʻn qabilasi u yerlarda yashamasdi.

11:32 *bitta qabila* — Yahudo qabilasiga ishora. Yahudo qabilasi Dovudning nabirasi boʻlgan Raxabomga sodiq qolgan edi, vaqti kelib, Benyamin qabilasi ham ularga

qo‘shilib, Raxabomga sodiqlik ko‘rsatdilar (12:20-24 ga qarang).

11:33 *Sulaymon* — qadimiy yunoncha, suryoniycha va lotincha tarjimalardan. Ibroniycha matnda *Ular*.

11:37 *Isroil* — shimoliy qabilalardan tashkil topgan xalq nazarda tutilgan.

12:1 *Shakam shahri* — shimoldagi qabilalarga qarashli asosiy shahar (Yoshua 24:1 ga qarang). Bu shahar Quddusdan qariyb 50 kilometr shimolda, Isroil tepaliklarida joylashgan.

12:1 *Isroil* — 11:37 izohiga qarang.

12:2 *…Misrdan qaytdi* — qadimiy yunoncha va lotincha tarjimalardan (yana 2 Solnomalar 10:2 ga qarang). Ibroniycha matnda *…Misrda yashadi*.

12:15 *…Shilo‘lik Oxiyo orqali…Yeribomga bergan so‘zi…* — 11:29-39 ga qarang.

12:18 *Odoniram* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Odoram*. Uning Odoniram degan shakli 4:6, 5:14 dan olingan.

12:20 *Isroil* — shu kitobning davomida shimoliy shohlik *Isroil* degan nom bilan, janubiy shohlik esa *Yahudo* degan nom bilan yuritilgan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi ISROIL va YAHUDO so‘zlariga qarang.

12:25 *Paniyol* — ibroniycha matnda bu nomning boshqa varianti *Panuval* bo‘lib, Giladda, Iordan daryosining sharq tomonida joylashgan.

12:28 *xudolaringiz* — yoki *xudoyingiz*. Chiqish 32:2-4 ga qarang.

12:29 *Baytil shahri…Dan shahri* — Isroilning, ya’ni shimoliy shohlikning janubiy va shimoliy chegarasidagi shaharlar.

12:30 *…Baytilga va Danga borardi* — qadimiy yunoncha tarjimadan. Ibroniycha matnda *…Danga borardi*.

12:31 *sajdagohlar* — 3:2 izohiga qarang.

12:32-33 *Yahudoda nishonlanadigan bayram* — yettinchi oyning o‘n beshinchi kuni Yahudoda bo‘ladigan mashhur Chayla bayrami (8:2 ning ikkinchi izohiga qarang).

12:32-33 *sakkizinchi oy* — ibroniy kalendarining Bul oyi nazarda tutilgan. Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan oktabrning o‘rtasidan boshlanadi.

13:2 *Yo‘shiyo* — Yahudo shohi Yo‘shiyo, miloddan oldingi 640-609 yillarda hukmronlik qilgan (4 Shohlar 22:1-23:30 ga qarang).

13:32 *Samariya* — bu voqeadan keyin taxminan 50 yil o‘tgach, Samariya shahri qurilgan (16:23-24 ga qarang). Ancha vaqt o‘tgandan keyingina Isroilga, ya’ni shimoliy shohlikka Samariya nomi berilgan (4 Shohlar 17:24 ga qarang).

14:2 *…Isroil xalqining shohi bo‘lishim haqida u bashorat qilgan edi* — 11:29-39 ga qarang.

14:15 *Ashera* — Kan’ondagi xalqlar sajda qilgan hosildorlik xudosi bo‘lib, ayol qiyofasida tasavvur qilingan. Uning erkak jufti Baal edi. Asheraning tasvirlari baland ustun shaklida bo‘lib, yog‘ochdan yasalgan edi.

14:17 *Tirza* — Shakamdan qariyb 10 kilometr shimoli–sharqda joylashgan (12:1 ning birinchi izohiga qarang). Samariya qurilgunga qadar bu shahar Isroilning, ya’ni shimoliy

shohlikning poytaxti edi (16:24 ga qarang).

14:23 *sajdagohlar* — 3:2 izohiga qarang.

14:24 *fohishlar* — o‘sha paytlarda Kan’ondagi butparast xalqlar o‘z sajdagohlarida diniy vazifalardan birini fahsh orqali bajarardilar. Butparast xalqlarning udumlariga ko‘ra, odamlar fohishalar va fohishlar bilan jinsiy aloqa qilish orqali o‘z xudolariga topinardilar, xudolaridan farovonlik ato qilishni so‘rardilar. Lekin Egamiz Isroil xalqiga bu yo‘l bilan sajda qilishni qat’iyan man etgan (Qonunlar 23:17-18 ga qarang).

14:25 *Raxabom hukmronligining beshinchi yili* — taxminan miloddan oldingi 926 yil.

14:31 *Abiyo* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Abuyom* (15:1, 7, 8 da ham bor).

15:2 *Absalom* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Abisalom* (shu bobning 10–oyatida ham bor). Uning Absalom degan shakli 2 Solnomalar 11:20 dan olingan.

15:2 *Absalomning qizi* — Maxo Absalomning nevarasi bo‘lgan. 2 Shohlar 14:27 ga ko‘ra, Absalomning yolg‘iz qizi Tamara edi. 2 Solnomalar 13:2 da Maxo Uriyolning qizi deb berilgan.

15:5 *Uriyo* — Dovudning sipohi edi. Shoh Dovud uning xotini Botshevaga uylanish niyatida Uriyoni o‘ldirtirgan (2 Shohlar 11:1-27 ga qarang).

15:12 *fohishlar* — 14:24 izohiga qarang.

15:13 *Buvisi* — ibroniycha matnda *Onasi*, biroq bu so‘z buvisiga yoki boshqa uzoq ona ajdodiga ham ishora qilishi mumkin. Shu bobning 2–oyatiga ko‘ra, Maxo Osoning buvisi, ya’ni Osoning otasi Abiyoni tuqqan onasi edi.

15:13 *Ashera* — 14:15 izohiga qarang.

15:13 *malikalik martabasi* — qadimgi Isroilda yuksak martaba hisoblangan (2:19 ga qarang).

15:13 *Qidron soyligi* — Quddus shahridan sharqda joylashgan. Soylik — ikki adir oralig‘idagi pastlik. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi SOYLIK so‘ziga qarang.

15:17 *Rama shahri* — Quddusdan qariyb 8 kilometr shimolda, Efrayim qirlarida joylashgan.

15:20 *Jalila ko‘li* — ibroniycha matnda *Keneret*, o‘sha vaqtda Jalila ko‘li va uning atrofidagi yerlar shu nom bilan ham atalardi.

15:29 *Oxiyo* — u shu bobning 27–oyatidagi Oxiyodan boshqa odam.

15:29 *…Egamizning O‘z quli, Shilo‘lik Oxiyo orqali aytgan so‘zlari…* — 14:7-11 ga qarang.

16:24 *to‘rt pud* — ibroniycha matnda *ikki talant*, taxminan 68 kiloga to‘g‘ri keladi.

16:31 *Sidon* — Finikiyada muhim ahamiyatga ega bo‘lgan shahar. Bu shahar Isroildan shimolda, O‘rta yer dengizi bo‘yida joylashgan edi. Bugungi kunda bu shahar Livan mamlakatining janubiy hududini tashkil qiladi.

16:33 *Ashera* — 14:15 izohiga qarang.

16:34 *Egamizning…Yoshua orqali qilgan bashorati…* — Yoshua 6:25 ga qarang.

16:34 *…joni evaziga…joni evaziga…* — bu ibora Xiyolning o‘g‘illari Yoshuaning aytgan la’nati tufayli o‘lganligiga ishora qilayotgan bo‘lishi mumkin. Yoki shaharni qayta qurayotgan paytda mahalliy xudolardan madad so‘rab, ularning himoyasi ostida bo‘lish uchun Xiyol o‘z o‘g‘illarini o‘sha xudolarga qurbonlik qilganiga ham ishora qilayotgan bo‘lishi mumkin.

17:1 *Gilad* — Iordan daryosining sharq tomonidagi o‘lka.

17:1 *…na shudring tushadi, na yomg‘ir yog‘adi* — ob–havoni nazorat qiluvchi Baal emas (16:31-32 ga qarang), balki Isroil xalqining Xudosi — Egamiz ekanligini isbotlash uchun aytilgan.

17:9 *Zorafat shahri* — Sidondan (16:31 izohiga qarang) qariyb 15 kilometr janubda joylashgan.

17:18 *Xudoning odami* — Egamiz payg‘ambarining yana bir nomi.

17:18 *Siz gunohlarimni Xudoga eslatgani…kelibsiz–da?!* — qadimda odamlar, agar gunoh qilsak, boshimizga kulfat keladi, deb ishonishgan.

18:19 *Ashera* — 14:15 izohiga qarang.

18:20 *Karmil tog‘i* — Isroilning shimolida, O‘rta yer dengizi bo‘yida joylashgan.

18:29 *Kechki qurbonlik payti* — taxminan kunduzi soat 3 ga to‘g‘ri keladi (shu bobning 36–oyatida ham bor).

18:31 *Yoqubga Egamiz…ayon qilgan edi* — Ibtido 32:28, 35:10 ga qarang.

18:32 *bir tog‘ora* — ibroniycha matnda *ikki sexa*, taxminan 15 kiloga to‘g‘ri keladi.

18:36 *Yoqub* — ibroniycha matnda *Isroil*, Yoqubning yana bir ismi (Ibtido 32:27-28 ga qarang).

18:45 *Yizril* — Karmil tog‘idan qariyb 27 kilometr janubi–sharqda joylashgan shahar.

19:3 *Bersheba shahri* — Yahudoning eng janubidagi shahar, Yizrildan qariyb 210 kilometr janubda joylashgan.

19:8 *Sinay* — ibroniycha matnda *Xorev*, Sinay tog‘ining yana bir nomi.

19:16 *Nimshi o‘g‘li Yohu* — aslida Yohu Nimshining nabirasi edi (4 Shohlar 9:2 ga qarang). Ibroniychada *o‘g‘il* so‘zi *nasl* ma’nosida ham ishlatiladi.

19:19 *…chakmonini uning ustiga tashladi* — bu harakat Ilyos Elishayni o‘ziga ergashtirib, payg‘ambar bo‘lishga chorlayotganining belgisi edi.

20:1 *Banhadad* — 15:18-20 da aytib o‘tilgan Banhadad bo‘lmay, uning vorisi bo‘lishi mumkin.

20:26 *Ofoq shahri* — Jalila ko‘lining sharq tomonida joylashgan bo‘lishi mumkin.

20:31 *…egnimizga qanor kiyib, bo‘ynimizga arqon bog‘laylik–da…* — qanor dag‘al qoramtir mato bo‘lib, echki yoki tuya junidan to‘qilgan. Qanor kiyib olish umidsizlikni va qayg‘uli holatni ifodalaydi. Bo‘yinga arqon bog‘lash esa qullarcha bosh egishning ramzi edi. Bu bilan ular Axabga asir bo‘lishga ham rozilik bildirayotgan edilar.

20:39 *ikki pud* — ibroniycha matnda *bir talant*, taxminan 34 kiloga to‘g‘ri keladi.

21:3 *Otalarimdan qolgan meros…* — Musoning qonuniga ko‘ra, yer dastlabki egasining

avlodlariga mulk bo‘lib qolar edi.

21:13 *Ikkita* — qonunga ko‘ra aybni tasdiqlash uchun kamida ikkita guvoh talab qilinardi (Qonunlar 17:6-7 ga qarang).

21:13 *...Xudoni...haqorat qildi* — Xudoni haqorat qilish og‘ir jinoyat bo‘lib, jazosi o‘lim edi (Chiqish 22:28, Levilar 24:10-16 ga qarang).

21:27 *...qayg‘udan kiyimlarini yirtdi, qanor kiyib oldi va ro‘za tutdi* — qanor dag‘al qoramtir mato bo‘lib, echki yoki tuya junidan to‘qilgan. Kiyimlarni yirtish, qanor kiyib olish va ro‘za tutish umidsizlikni va qayg‘uli holatni ifodalaydi. Ko‘pincha bu harakat Xudodan kechirim so‘rab ibodat qilish va Undan madad tilash bilan birgalikda amalga oshirilgan.

22:3 *Gilad* — Iordan daryosining sharq tomonidagi o‘lka.

22:38 *...Egamizning aytgani...* — 21:19 ga qarang.

22:46 *fohishlar* — 14:24 izohiga qarang.

22:48 *Ezyo‘n–Geber* — Sinay yarim orolining sharqida, Qizil dengizning shimoliy qirg‘og‘idagi bandargoh (9:26 ga qarang). To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi BANDARGOH so‘ziga qarang.

SHOHLAR
(TO‘RTINCHI KITOB)

Kirish

“Shohlar (to‘rtinchi kitob)”da ikki mustaqil shohlik — Yahudo va Isroil shohliklari tarixining davomi bayon etiladi. Hukmronlik qilgan shohlarning muvaffaqiyati ularning siyosiy yoki iqtisodiy yutuqlari bilan emas, balki Xudoga bo‘lgan sadoqati bilan baholanadi. Bu kitobda “Shohlar (uchinchi kitob)” bilan birga Yahudo va Isroil tarixining faqat e’tiborga sazovor bo‘lgan muayyan voqealari va shaxslari haqida so‘z yuritiladi. Bundan maqsad — tarixda tanazzulga yuz tutgan ikkala shohlikning qismati to‘g‘risida hikoya qilish orqali kitobxonga axloq borasida saboq berishdir. Bu ikkala shohlikning aholisi payg‘ambarlarga quloq solmay, Xudodan yuz o‘girganlari uchun dushmanlarga mag‘lub bo‘lib, o‘z yurtlaridan surgun qilinadi.

“Shohlar (uchinchi kitob)” va “Shohlar (to‘rtinchi kitob)”ning asl nusxasi bitta ibroniycha kitob bo‘lib, ikkala qismini bitta o‘ramga joylash uzunlik qilgani uchun, kitob ikki qismga — “Shohlar (uchinchi kitob)” va “Shohlar (to‘rtinchi kitob)”ga bo‘lingan.

Kitob asosan, ikki qismdan iborat. Birinchi qism (1-17–boblar) miloddan oldingi 722 yilgacha ikkala shohlikda yuz bergan voqealarni o‘z ichiga oladi. Ossuriya shohligi Isroilni, ya’ni shimoliy shohlikni bosib olib, poytaxti Samariyani yo‘q qiladi. Faqat Yahudo, ya’ni janubiy shohlik qoladi.

Kitobning ikkinchi qismi (18-25–boblar) Yahudo shohligida miloddan oldingi 586 yilgacha yuz bergan voqealar bayonidan iborat. Bobil shohi Navuxadnazar Yahudo yurtini bosib oladi. Poytaxt Quddus tamomila vayron qilinib, Yahudo va Quddus aholisining ko‘pchiligi Bobilga asir qilib olib ketiladi. Quddusning qulashi Isroil tarixida eng dahshatli voqealardan biri bo‘lib qoladi. Ammo kitobning oxirida ko‘rinib turibdiki, Xudo itoatsiz xalqidan O‘z mehrini ayamaydi, U shoh Dovudga bergan va’dasida turib, uning sulolasini asrab qoladi. Yohayixin degan Yahudo shohi Bobil asirligidan ozod bo‘ladi va umr bo‘yi Bobil shohi dasturxonidan taom yeydi. Kitob Yahudo xalqining kelajagiga umid borligini ko‘rsatish bilan tugaydi.

1–BOB

Ilyos va shoh Oxoziyo

1 Isroil* shohi Axabning vafotidan keyin*, Mo‘ab yurti* Isroilga qarshi isyon
ko‘tardi*.
2 Isroil shohi Oxoziyo Samariya shahridagi saroyining tomi* panjarasidan yiqilib,
qattiq shikastlandi. So‘ng choparlariga: “Filistlarning Exron shahridagi* xudosi Baal–
Zabub* yoniga borib, undan so‘ranglar–chi, men sog‘ayarmikanman”, deb ularni
jo‘natdi.
3 Shunda Tishba shahridan bo‘lgan Ilyos payg‘ambarga Egamizning farishtasi
gapirdi:
— Qani, bo‘l, Samariya shohi yuborgan choparlarga peshvoz chiqib, ularga shu
gaplarni yetkaz: “Nima uchun sizlar Exron shahrining xudosi Baal–Zabubdan, shoh

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

sog‘ayarmikan, deb so‘rab bilish uchun boryapsizlar?! Isroilda Xudo yo‘q deb o‘ylayapsizlarmi?! 4 Endi Egam shunday aytmoqda: shohingiz shu qilgani uchun yotgan joyidan turmay, o‘ladi.”

Ilyos Egamizning aytganini bajardi.

5 Choparlar Oxoziyoning huzuriga qaytib bordilar. Shoh:

— Namuncha tez qaytib keldingizlar? — deb so‘radi.

6 Choparlar Oxoziyoga aytdilar:

— Qarshimizdan bir odam bizga peshvoz chiqdi. Sizning huzuringizga qaytishimizni, shu xabarni yetkazishimizni aytdi: “Egamiz shunday demoqda: nimaga sen Exronning xudosi Baal–Zabubdan, sog‘ayarmikanman, deb so‘rab bilish uchun choparlar jo‘natding? Isroilda Xudo yo‘q deb o‘yladingmi?! Shu qilganing uchun yotgan joyingdan turmay, o‘lasan.”

7 Oxoziyo choparlardan:

— Sizlarga peshvoz chiqib, shu gaplarni aytgan odamning ko‘rinishi qanaqa edi? — deb so‘radi.

8 — U odam jundan to‘qilgan kiyim kiygan ekan, beliga charm kamar bog‘lab olibdi, — deb javob berishdi choparlar shohga.

— U Ilyos, — dedi Oxoziyo. 9 Shundan keyin shoh Oxoziyo Ilyosni olib kelish uchun ellikboshini ellikta sipohi bilan jo‘natdi. Ilyos tog‘ tepasida o‘tirgan edi. Ellikboshi Ilyosni topib, unga dedi:

— Ey Xudoning odami!* Tezroq pastga tushar ekansiz, shohimiz shunday deb amr qilmoqda.

10 — Agar men Xudoning odami bo‘lsam, — deya javob berdi Ilyos, — osmondan olov tushib, seni va ellikta sipohingni yondirib yuborsin.

Shu zahoti osmondan olov tushib, ellikboshini ham, hamma sipohlarini ham yondirib yubordi.

11 Shoh Ilyosning oldiga yana boshqa ellikboshisini ellikta sipohi bilan jo‘natdi. U ellikboshi ham:

— Ey Xudoning odami! Tezroq pastga tushar ekansiz, shohimiz shunday deb amr qilmoqda, — dedi.

12 — Agar men Xudoning odami bo‘lsam, — deb javob berdi Ilyos, — osmondan olov tushib, seni va ellikta sipohingni yondirib yuborsin.

Shu zahoti osmondan olov tushib, ellikboshini ham, ellikta sipohini ham yondirib yubordi.

13 Oxoziyo uchinchi marta yana ellikta sipoh bilan boshqa ellikboshini jo‘natdi. Ellikboshi Ilyosning oldiga chiqib, uning qarshisida tiz cho‘kdi va unga iltijo qilib dedi:

— Ey Xudoning odami! Mening jonimga va mana shu ellikta qulingizning joniga rahm qiling. 14 Osmondan olov tushib, mendan oldingi ikkala ellikboshi ham barcha sipohlari bilan yonib ketgandi. Endi mening jonimga rahm qiling.

15 Shunda Ilyosga Egamizning farishtasi zohir bo‘lib:

— Shohdan qo‘rqma, ellikboshi bilan birga boraver, — deb aytdi. Ilyos ellikboshi bilan birga shoh huzuriga borib, 16 unga shunday dedi:

— Egamiz aytmoqda: “Isroilda Xudo yo‘qday, Exronning xudosi Baal–Zabubdan, sog‘ayarmikanman, deb so‘rab bilish uchun choparlar jo‘natding. Shu qilganing uchun yotgan to‘shagingdan turmay, o‘lasan.”

17 Shunday qilib, Egamizning Ilyos orqali aytganiga muvofiq, shoh Oxoziyo vafot etdi.
Shohning o‘g‘li bo‘lmagani uchun uning o‘rniga ukasi Yoram shoh bo‘ldi. Bu voqea yuz
berganda, Yahudo shohi Yohuram ikkinchi yil shohlik qilayotgan edi*. Yohuram
Yohushafatning o‘g‘li edi.
18 Oxoziyoning boshqa ishlari “Isroil shohlari tarixi” kitobida yozilgan.

2–BOB

Ilyos osmonga olinadi

1 Egamiz Ilyosni quyun ichida osmonga ko‘tarib ketadigan vaqt keldi. Ilyos bilan
Elishay Gilgal shahridan* chiqib ketishayotganda, 2 Ilyos Elishayga:
— Sen shu yerda qol, Egamiz menga, Baytil shahriga bor, deb amr qilgan, — dedi.
— Xudo shohid! Ont ichib aytamanki, sizdan hecham ayrilmayman, — dedi Elishay.
So‘ngra ular Baytilga jo‘nadilar.
3 Baytilda payg‘ambarlar guruhi Elishayga peshvoz chiqib:
— Egamiz bugun hazratingni olib ketadi, buni bilasanmi? — deb so‘radilar.
— Bilaman, — dedi Elishay, — lekin menga bu to‘g‘rida gapirmanglar.
4 Keyin Ilyos Elishayga:
— Sen shu yerda qol, Egamiz menga, Yerixo shahriga bor, deb amr bergan, — dedi.
— Xudo shohid! Ont ichib aytamanki, sizdan hecham ayrilmayman, — deya javob
qaytardi Elishay. So‘ngra ular Yerixoga kelishdi.
5 Yerixoda payg‘ambarlar guruhi Elishayning oldiga kelib, undan:
— Egamiz bugun hazratingni olib ketadi, buni bilasanmi? — deb so‘rashdi.
— Bilaman, — dedi Elishay, — lekin menga bu to‘g‘rida gapirmanglar.
6 Keyin Ilyos Elishayga:
— Sen shu yerda qol, Egamiz menga, Iordan daryosiga bor, deb amr bergan, — dedi.
— Xudo shohid! Ont ichib aytamanki, sizdan hecham ayrilmayman, — dedi Elishay.
Shunday qilib, ikkovlari jo‘nab ketishdi.
7 Payg‘ambarlardan elliktasi kelib, uzoqroqda Ilyos bilan Elishayning ro‘parasida
to‘xtadilar. Ikkovi esa Iordan daryosi bo‘yida turardilar. 8 Bir payt Ilyos chakmonini
oldi–da, burab eshib, suvga urgan edi, suv ikki tomonga surilib, yo‘l ochildi. Ikkovlari
quruq joydan o‘tdilar.
9 Ular narigi qirg‘oqqa o‘tib olishgach, Ilyos Elishayga dedi:
— Meni hademay Egamiz olib ketadi. Ayt, shu voqea yuz bermasdan oldin sen uchun
nima qilay?
Shunda Elishay:
— Iltimos, sizning payg‘ambarlik ruhingizdan menga ikki hissa ko‘p meros qolsin*,
toki sizning izdoshingiz bo‘lay, — dedi.
10 — Qiyin narsani so‘rayapsan, — dedi Ilyos. — Mayli, agar men yoningdan
ko‘tarilib ketayotganimni ko‘ra olsang, istaganing bajo bo‘ladi. Agar ko‘ra olmasang, bajo
bo‘lmaydi.
11 Ular yo‘lda suhbatlashib ketishayotgan edi, birdan olov otlar qo‘shilgan olov arava
paydo bo‘lib, ularning o‘rtasiga yeldek uchib keldi. Ilyos quyun ichida osmonga chiqib
ketdi. Shunday qilib, ikkovlari bir–birlaridan ayrildilar. 12 Elishay buni ko‘rib Ilyosga
xitob qildi:

— Otam! Otam! Siz Isroilning qudratli himoyachisi edingiz! Isroilning jang aravasi va otliq lashkari kabi edingiz–a! Qayoqqa ketib qoldingiz–a!

Elishay Ilyosni boshqa ko‘ra olmagani uchun egnidagi kiyimini ikkiga bo‘lib tashladi*. 13 Ilyosning egnidan chakmoni tushib qolgan edi. Elishay o‘sha chakmonni olib orqasiga qaytib, Iordan daryosi qirg‘og‘iga keldi. 14 Elishay Ilyosning chakmonini suvga urib: “Egam Ilyosga qilganiday, men uchun ham mo‘jiza ko‘rsatadimi?” — dedi. Elishay chakmonini yana suvga urgan edi, daryo suvi ikki tomonga surilib yo‘l ochildi. Elishay o‘sha joydan o‘tib ketdi.

15 Yerixolik payg‘ambarlar guruhi olisdan Elishayni ko‘rib:

— Elishayda Ilyosning ruhi bor, — deb Elishayga peshvoz chiqdilar. Uni kutib oldilar, yer o‘pib unga ta’zim qildilar. 16 So‘ngra payg‘ambarlar Elishayga:

— Biz, qullaringizda ellikta baquvvat odam bor, — dedilar. — Ijozat bering, ular borib, hazratingizni izlashsin. Balki Egamizning Ruhi uni biror toqqa yoki vodiyga boshlab ketgandir.

— Yo‘q, yubormanglar, — dedi Elishay ularga.

17 Lekin payg‘ambarlar guruhi iltimos qilaverib, oxiri uni ko‘ndirdilar. Elishay: “Mayli, yuboringlar”, dedi. Payg‘ambarlar guruhi ellikta odamni jo‘natdilar. Odamlar uch kun qidirib, Ilyosni topa olmaganlaridan keyin, 18 Elishayning yoniga qaytib keldilar. Elishay bu paytda Yerixoda edi. Elishay ularga:

— Sizlarga, bormanglar, deb aytmaganmidim?! — dedi.

Elishayning mo‘jizalari

19 O‘sha shaharning aholisi Elishayga murojaat qildi:

— Hazratimiz ko‘rib turganlariday, shahar yaxshi yerga joylashgan, lekin suvi yaxshi emas, yeri ham hosil bermaydi.

20 Shunda Elishay:

— Menga yangi kosaga tuz solib beringlar, — dedi. Ular Elishayning aytganini berdilar. 21 Elishay buloq boshiga chiqib, tuzni suvga tashladi–da, shunday dedi:

— Egamiz shunday aytmoqda: “Men bu suvni toza qildim, endi bu suv tufayli hecham o‘lim bo‘lmaydi, bundan buyon yeringiz ham hosil beradi.”

22 Elishay aytganidek, suv toza bo‘ldi va hozirgacha* tozadir.

23 Shundan keyin Elishay u yerdan Baytil shahriga yo‘l oldi. U yo‘lda ketayotgan edi, Baytildan chiqqan yosh bolalar unga ergashib:

— Jo‘nab qol, yo‘qol, kal! Jo‘nab qol, kal! — deb uni masxara qilishdi.

24 Elishay orqasiga qayrilib, bolalarga qaradi va ularni Egamizning nomi bilan qarg‘adi. Shu payt o‘rmondan ikkita urg‘ochi ayiq chiqib, bolalardan qirq ikkitasini burda–burda qilib tashladi.

25 Elishay bu yerdan Karmil tog‘iga ketdi, u yerdan esa Samariyaga qaytdi.

3–BOB

Mo‘ab va Isroil o‘rtasidagi urush

1 Axab o‘g‘li Yoram* Samariyada Isroil taxtiga o‘tirdi va o‘n ikki yil shoh bo‘ldi. Bu paytda Yohushafat Yahudoda shohlik qilayotganiga o‘n sakkiz yil bo‘lgan edi*. 2 Yoram Egamiz oldida qabihliklar qilgan bo‘lsa ham, otasi va onasichalik emasdi. Otasi Baalga atab o‘rnatgan toshni* u qo‘porib tashladi. 3 Shunday bo‘lsa ham, Isroil xalqini gunohga

botirgan Nabat o‘g‘li Yeribom qilgan gunohlarga* ergashdi.
4 Mo‘ab* shohi Mesha chorvachilik bilan shug‘ullanardi. U Isroil shohiga har yili
100.000 ta qo‘zini va 100.000 ta qo‘yning junini o‘lpon qilib to‘lardi. 5 Axab vafot
etgandan keyin, Mo‘ab shohi Isroil shohiga qarshi bosh ko‘tardi.
6 Shunda shoh Yoram Samariyadan chiqib, jamiki Isroil lashkarini to‘pladi. 7 So‘ngra
Yahudo shohi Yohushafatga shu xabarni yetkazdi: “Mo‘ab shohi menga qarshi qo‘zg‘aldi.
Mo‘abga qarshi urishgani men bilan borasizmi?” Yahudo shohi quyidagicha javob
jo‘natdi: “Boraman, men sen bilan birgaman, mening xalqim sening xalqingdir, mening
otlarim sening ham otlaringdir.” 8 “Biz qaysi yo‘ldan borishimiz kerak?” so‘radi Yahudo
shohi. “Edom* sahrosidagi yo‘ldan”, javob berdi shoh Yoram.
9 Isroil, Yahudo va Edom shohlari birgalikda yo‘lga chiqdilar. Ular yetti kun yo‘l
yurganlaridan keyin, birga borgan lashkar uchun ham, hayvonlar uchun ham suv tugadi.
10 Shunda Isroil shohi:
— Evoh, Egamiz bizni — uchala shohni Mo‘ab shohi qo‘liga berish uchun bir joyga
to‘plabdi–da, — dedi.
11 — Bu yerda Egamizning payg‘ambari yo‘qmi? Agar bo‘lsa, biz o‘sha payg‘ambar
orqali Egamizning xohish–irodasini bilardik, — dedi Yohushafat.
Isroil shohining a’yonlaridan biri:
— Shofot o‘g‘li Elishay shu yerda, u doimo Ilyosning xizmatida bo‘lgan edi*, — deb
javob berdi.
12 — Egamizning xabarini bizga u ayta oladi, — dedi Yohushafat. So‘ngra Isroil shohi,
Yohushafat va Edom shohi Elishayning huzuriga bordilar. 13 Elishay Isroil shohiga aytdi:
— Men senga qanday yordam bera olaman?! Bor, o‘z ota–onangning
payg‘ambarlaridan* maslahat so‘ra.
Isroil shohi Elishayga:
— Yo‘q, Egamiz bizni — uchala shohni Mo‘ab shohining qo‘liga berish uchun
to‘plagan, — dedi.
14 — O‘zim xizmatida bo‘lgan Sarvari Olam shohid! — dedi Elishay. — Agar men
Yahudo shohi Yohushafatni hurmat qilmaganimda, senga hech ham qaramagan, hatto
nazar solmagan ham bo‘lardim. 15 Endi menga bir sozanda olib kelinglar!
Sozanda musiqa chalgan edi, Egamiz Elishayga O‘z qudratidan berdi. 16 Elishay dedi:
— Egamiz shunday aytmoqda: “Qurib qolgan bu soylik suvga to‘ladi. 17 Na shamolni,
na yomg‘irni ko‘rasizlar, lekin bu soylik suvga to‘lib–toshadi, — deb aytmoqda Egamiz.
— O‘zlaringiz ham, ot–ulovlaringiz ham, chorvangiz ham shu suvdan ichasizlar.”
18 Egamiz qiladigan bu ishlar hali kamdir: U Mo‘ab xalqini sizlarning qo‘lingizga beradi.
19 Sizlar esa Mo‘abning hamma mustahkam shaharlarini, eng chiroyli shaharlarini
vayron qilasizlar, hamma mevali daraxtlarini kesib tashlaysizlar, hamma buloqlarini
ko‘masizlar, hosildor dalalarining hammasini toshloq qilib, yaroqsiz holatga
keltirasizlar.
20 Keyingi kuni ertalabki qurbonlik paytida*, birdan Edom tomondan suv to‘lib–
toshib oqa boshladi. Hamma yerni suv bosib ketdi.
21 Mo‘ab xalqi shohlar jang qilish uchun kelayotganini eshitdi–yu, hammalari —
qurol ko‘tarishga yaraydiganlaridan tortib, kattalarigacha yig‘ilishib, chegaraga kelishdi.
22 Ular saharda turganlarida, quyosh suv ustida yog‘du sochar, suv Mo‘ab lashkariga
uzoqdan qonga o‘xshab qizarib ko‘rinardi.

23 — Bu qon–ku, — deyishdi ular, — shohlar bir–birlari bilan jang qilibdilar, bir–
birlarini qiribdilar. Qani, o‘ljaga, Mo‘ab lashkari!
24 Ammo Mo‘ab lashkari Isroil qarorgohiga borganda, Isroil lashkari ularga birdan
tashlanib, hujum qilib qoldi, Mo‘ab lashkari esa qochib qoldi. Isroil lashkari Mo‘ab
yurtiga kirib ham hujumni davom ettirdi. 25 Shaharlarini vayron qildilar, daladagi
hamma hosildor yerlarga tosh otaverib, dalani toshga to‘ldirib tashladilar, buloqlarini
ko‘mib yubordilar, barcha mevali daraxtlarini kesdilar. Faqat Xir–Xarasot shahridagi
tosh devorlar qoldi, xolos. Palaxmonchilar shaharni qurshab olib, tosh irg‘itaverdilar.
26 Mo‘ab shohi jangda mag‘lub bo‘layotganini anglab yetgach, yetti yuzta qilichbozini
yoniga oldi. U Edom shohi kuchlarini yorib o‘tmoqchi bo‘ldi, lekin buning uddasidan
chiqolmadi. 27 Shundan keyin Mo‘ab shohi taxt vorisi bo‘lgan to‘ng‘ich o‘g‘lini olib keldi–
da, uni devor ustida kuydirib qurbonlik qildi. Bu voqeadan Isroil lashkari qattiq
vahimaga tushdi. Ular Mo‘ab shohidan uzoqlashib, o‘z yurtiga qaytib ketdilar.

4–BOB

Elishayning beva ayolga yordami

1 Ilgari payg‘ambarlar guruhida bir payg‘ambar bo‘lar edi. O‘sha payg‘ambarning
bevasi Elishayning oldiga kelib faryod qildi:
— Sizga xizmat qilib yurgan mening erim vafot etdi. O‘zingiz bilasiz, u Egamizdan
qo‘rqardi. Bir odam oldin qarz bergan edi. Endi u ikkala o‘g‘limni o‘ziga qul qilib olib
ketgani keldi.
2 Shunda Elishay:
— Ayt–chi, sen uchun men nima qilay? Uyingda nima bor? — dedi.
— Bu cho‘ringizning uyida zaytun moyi solingan xumchadan boshqa hech vaqo yo‘q,
— dedi ayol.
3 — Bor, hamma qo‘shnilaringdan bo‘sh idishlarini so‘rab ol, — dedi Elishay. — Iloji
boricha ko‘proq so‘rab ol. 4 Borganingdan keyin o‘g‘illaring bilan birga uyga kirib,
eshikni yopib qo‘y. So‘ng hamma idishga zaytun moyi quy, to‘lgan idishlarni nari surib
qo‘yaver.
5 Ayol Elishayning oldidan ketgach, o‘g‘illari bilan birga uyga kirib, eshikni berkitdi.
O‘g‘illari idishlarni uzatib turishdi, ayol esa quyaverdi.
6 Hamma idishlar to‘lgandan keyin, ayol o‘g‘liga:
— Yana idish uzat, — dedi.
— Boshqa idish yo‘q, — dedi o‘g‘li. Shundan so‘ng zaytun moy ham oqmay qoldi.
7 Ayol payg‘ambar huzuriga kelib, bo‘lgan voqeani aytib berdi.
— Bor, moyni sotib, qarzingni to‘la, — dedi Elishay. — Ortib qolgan moyni ishlatib,
o‘g‘illaring bilan kun kechir.

Elishay va Shunamlik boy ayol

8 Bir kuni Elishay Shunamga* keldi. U yerda bir boy ayol: “Menikiga kirib, choy–poy
ichib keting”, deb iltimos qilib, ko‘ndirdi.
Elishay qachon kelmasin, har doim tamaddi qilgani o‘sha ayolnikiga kiradigan bo‘ldi.
9 Bir kuni ayol eriga:
— Shu yo‘ldan doimo o‘tib yuradigan odam Xudoning muqaddas odami ekanini bilib
oldim, — dedi. 10 — Keling, tom ustiga chog‘roqqina boloxona qurib, u yerga ko‘rpa–

to‘shak, xontaxta, kursi, moychiroq qo‘yaylik. U biznikiga kelganda, boloxonada tursin.
11 Kunlarning birida Elishay Shunamga kelganda, boloxonaga kirib, yonboshladi.
12 Keyin xizmatkori Gaxaziga: “Shunamlik ayolni chaqir”, deb buyurdi. Xizmatkor ayolni chaqirib keldi. Ayol kelgach, 13 Elishay xizmatkoriga gapirdi:
— Bu ayolga shunday deb ayt: “Sen bizga g‘amxo‘rlik qilyapsan. Buning evaziga sen uchun nima qilaylik? Sening biror ishing yuzasidan shoh bilan yoki lashkarboshi bilan gaplashish kerak emasmi?”
— Yo‘q, — dedi ayol, — men xalqim orasida yashasam, bas.
14 Elishay Gaxazidan:
— Unday bo‘lsa, bu ayol uchun nima qilishim kerak? — deb so‘radi.
— Uning o‘g‘li yo‘q ekan, eri esa keksayib qolibdi, — dedi Gaxazi.
15 — Chaqir uni! — buyurdi Elishay. Xizmatkor ayolni chaqirib keldi, ayol eshik oldida hozir bo‘ldi.
16 — Kelgusi yili xuddi shu paytda qo‘lingda o‘g‘lingni ko‘tarib yurgan bo‘lasan, — deb aytdi Elishay ayolga.
— Yo‘q, hazratim, ey Xudoning odami*, bu cho‘ringizni behudaga umidvor qilmang, — dedi ayol.
17 Lekin Elishay aytganiday, ayol homilador bo‘lib, kelgusi yil o‘sha vaqtda o‘g‘il tug‘di.
18 Bola ulg‘ayaverdi. Bir kuni bola o‘roqchilar orasida ishlayotgan otasi yoniga borib:
19 “Voy boshim! Boshim og‘rib ketdi!” dedi otasiga. Otasi esa xizmatkoriga: “Onasiga olib bor”, deb buyurdi. 20 Xizmatkor bolani ko‘tarib, onasiga olib bordi. Bola tushgacha onasining tizzasida o‘tirdi–yu, so‘ngra vafot etdi. 21 Ona bolasini ko‘tarib borib, payg‘ambar yotadigan to‘shakka yotqizdi–da, eshikni berkitib, tashqariga chiqdi.
22 So‘ng erini chaqirib kelib, unga aytdi:
— Mening yonimga xizmatkorlaringizdan bittasini eshagi bilan birga yuboring. Men payg‘ambar huzuriga borib, tezda qaytib kelaman.
23 — Nimaga uning oldiga bugun borishing kerak?! — dedi eri. — Bugun yangi oy shodiyonasi kuni emas, Shabbat kuni* ham emas.
— Hechqisi yo‘q, — dedi ayol. 24 Shundan keyin ayol eshakni egarlab, xizmatkorga:
— Eshakni hayda, — dedi, — men senga gapirmagunimcha sekinlama.
25 Ayol jo‘nab ketdi. U payg‘ambar yoniga — Karmil tog‘iga* yetib bordi. Payg‘ambar uni uzoqdan ko‘rib, xizmatkori Gaxaziga:
— Bu o‘sha Shunamlik ayol–ku! — dedi. 26 — Yugur, uni kutib ol, “O‘zing yaxshimisan? Ering sog‘–salomatmi? Bolang yaxshimi?” deb undan so‘ra.
— Hammasi yaxshi, — dedi ayol. 27 Ayol toqqa, payg‘ambar yoniga yetib kelgach, uning oyoqlariga yopishib oldi. Gaxazi, ayolni chetroqqa olib qo‘yay, deb yaqin kelgan edi, Elishay Gaxaziga aytdi:
— Uni tinch qo‘y, uning dili ozor chekkan. Egamiz esa buni mendan yashirdi, menga ma’lum qilmadi.
28 — Men hazratimdan o‘g‘il so‘raganmidim?! — dedi ayol. — “Meni behudaga umidvor qilmang”, deb aytmaganmidim?!
29 Elishay Gaxaziga aytdi:
— Qani bo‘l, mening tayog‘imni qo‘lingga olib yugur. Birortasini uchratib qolsang, u bilan salomlashma, kim senga salom bersa, salomiga alik olma. Borganingdan keyin

tayog‘imni bolaning yuziga qo‘y.
30 — Xudo shohid! Ont ichib aytamanki, sizsiz ketmayman, — dedi bolaning onasi
Elishayga. Elishay o‘rnidan turib, ayolni ergashtirib ketdi. 31 Gaxazi oldin yetib borib,
tayoqni bolaning yuziga qo‘ydi. Na bir sado, na bir javob bo‘lmagandan keyin Elishayga
peshvoz chiqib: “Bola uyg‘onmayapti”, dedi.
32 Elishay ichkariga kirdi. Qarasa, o‘lgan bola Elishayning to‘shagida yotgan ekan.
33 Elishay xonaga kirgach, eshikni berkitdi–da, Egamizga yolvorib ibodat qildi. 34 So‘ng
bolaning ustiga cho‘zilib yotdi. U og‘zini bolaning og‘ziga, ko‘zlarini ko‘zlariga, kaftini
kaftiga qo‘ydi, bolaning ustida cho‘zilib yotganda, bolaning tanasi isidi. 35 So‘ngra u
o‘rnidan turib boloxonaning u yog‘idan bu yog‘iga yurdi. Keyin yana qaytib kelib,
bolaning ustiga cho‘zildi. Bola yetti marta aksirib, ko‘zlarini ochdi.
36 Elishay Gaxaziga: “Ayolni chaqir!” — dedi. Gaxazi ayolni chaqirib keldi. Ayol
Elishayning oldiga yaqinlashdi. Elishay unga: “Ol o‘g‘lingni!” — dedi.
37 Ayol ichkari kirib, Elishayning oyoqlariga yiqildi, boshi yerga tekkuday bo‘lib
ta’zim qildi. O‘g‘lini olib, chiqib ketdi.

Yana ikki mo‘jiza

38 Elishay Gilgalga* qaytib keldi. Bu yerda ocharchilik hukm surayotgan edi.
Payg‘ambarlar guruhi Elishayning oldiga yig‘ilishgan edi. Shunda Elishay xizmatkoriga:
— Katta qozon o‘rnatib, payg‘ambarlar guruhi uchun biror taom pishir! — dedi.
39 Payg‘ambarlardan bittasi dalaga ko‘kat tergani chiqdi. U yerda chirmashib
o‘sadigan yovvoyi qovoqlarni topib, etagini to‘ldirib qovoqlardan terdi. U qovoqlarni
olib kelib to‘g‘radi va taom qaynayotgan qozonga tashladi. O‘sha odam qovoqning
qanaqaligini bilmas edi.
40 Hammalariga taomdan quyib berildi. Ular taomni tatib ko‘rishlari bilanoq: “Ey
payg‘ambar hazratlari! Qozondagi taom zahar bo‘lib ketibdi–ku!” deb shovqin
ko‘tardilar. Taomdan hech kim tanovul qila olmadi.
41 Shunda Elishay:
— Menga un beringlar! — dedi. Unni qozonga solgach, xizmatkorga:
— Endi odamlarga quyib beraver, yeyaverishsin, — dedi. Qozondagi taom bezarar
bo‘lib qolgan edi.
42 Baal–Sholisho shahridan* bir kishi arpasining birinchi hosilidan qilingan yigirmata
kulcha va bir qop yangi uzilgan boshoqni payg‘ambarga olib keldi. Elishay xizmatkoriga:
— Odamlarga ber, tanovul qilishsin, — deb buyurdi.
43 Qanday qilib shuginani yuzta odamga beraman?! — dedi xizmatkor.
— Odamlarga bo‘lib ber, tanovul qilishsin, — dedi Elishay, — chunki Egamiz
shunday demoqda: “Hamma to‘yadi, hatto ortib ham qoladi.”
44 Xizmatkor odamlarga kulchalarni va boshoqni bo‘lib berdi. Egamiz aytganiday,
odamlar yeb to‘ydi, yana ortib ham qoldi.

5–BOB

Elishay No‘monga shifo beradi

1 Oram shohining No‘mon degan lashkarboshisi bor edi. Xo‘jayini uni juda ulug‘lar va
hurmat qilar edi, chunki Egamiz No‘mon orqali Oramga g‘alaba ato qilardi. No‘mon juda
dovyurak jangchi edi–yu, lekin teri kasalligiga* chalingan edi.

2 Oram lashkari Isroil yurtiga bostirib borganda, kichkina qizchani asir qilib olib
kelgan edi. Qizcha No‘monning xotiniga cho‘rilik qilardi. 3 Qizcha bir kuni bekasiga aytib
qoldi:
— Agar to‘ram Samariyadagi payg‘ambar* huzuriga borganlarida edi, o‘sha
payg‘ambar to‘ramga shifo bergan bo‘lardi.
4 Shunday qilib, No‘mon o‘z hukmdori huzuriga bordi. Shohga Isroil yurtidan
keltirilgan qizchaning aytganlarini gapirib berdi. 5 Oram shohi No‘monga:
— Yo‘lga otlanaver, men Isroil shohiga* maktub yozib beraman, — dedi. No‘mon
yigirma bir pud* kumush, to‘rt pud* oltin, o‘n sidra qimmatbaho kiyim–bosh olib, yo‘lga
chiqdi. 6 No‘mon maktubni Isroil shohiga keltirib berdi. Maktub shu mazmunda bitilgan
edi: “Ushbu maktub yetib borganda, bilingizki, xizmatkorim No‘monni sizning
huzuringizga yuborgan bo‘laman, uni teri kasalligidan siz forig‘ qilishingiz mumkin.”
7 Isroil shohi maktubni o‘qib, vahimaga tushib, kiyimlarini yirtdi:
— Oram shohi meni hayot baxsh etadigan va jon oladigan Xudo deb o‘ylayaptimi?!
Shifo berishim uchun u mening huzurimga odamini jo‘natibdi–ya! Mana, bilib qo‘yinglar,
Oram shohi men bilan urush chiqarish uchun bahona izlayapti.
8 Isroil shohi vahimaga tushib liboslarini yirtganini Elishay payg‘ambar eshitgach,
shohga xabarchi orqali shu gapni yetkazdi: “Nega vahimaga tushib liboslaringizni
yirtdingiz? O‘sha odam mening oldimga kelsin, Isroilda payg‘ambar borligini bilib
qo‘ysin.”
9 No‘mon otlariyu jang aravalarini Elishayning uyi eshigi oldiga olib kelib to‘xtadi.
10 Elishay No‘monning oldiga xizmatkorini chiqarib, u orqali No‘monga shu gapni
yetkazdi: “Bor, Iordan daryosida yetti marta yuvin, shunda tanang yangilanib, pok
bo‘ladi.” 11 No‘mon esa darg‘azab bo‘ldi: “Men o‘ylagan edimki, payg‘ambar albatta
mening oldimga chiqadi, o‘zining Egasi Xudoni chaqirib iltijo qiladi. Qo‘llari bilan kasal
joyimni silab, meni bu kasallikdan forig‘ qiladi. 12 Damashqdagi Abano va Parfar
daryolari Isroilning hamma daryolaridan afzal emasmi?! Men o‘sha daryolarda yuvinib,
poklanib olaverardim–ku!”
No‘mon jahl bilan burilib ketdi.
13 Shunda xizmatkorlari kelib:
— Janobi oliylari, agar payg‘ambar sizga qiyin narsani aytganda, qilmasmidingiz? —
deb gapirishdi, — u sizga: “Yuvingin, pok bo‘lib qolasan”, dedi xolos–ku.
14 Oxiri, No‘mon payg‘ambarning aytganini qilib, Iordan suvida yetti marta sho‘ng‘idi.
Shunda tanasi xuddi yosh bolaning tanasi kabi yangilanib, pok bo‘ldi.
15 No‘mon va uning barcha hamrohlari payg‘ambar huzuriga qaytib keldilar. No‘mon
Elishayning huzuriga kelgach, aytdi:
— Butun yer yuzida Isroil xalqining Xudosidan boshqa Xudo yo‘qligini bildim.
Marhamat, endi men, qulingizning hadyalarini qabul qiling.
16 Men xizmat qilayotgan Xudo shohid! Hadyangni olmayman! — dedi Elishay.
No‘mon Elishayni qancha majbur qilsa ham, Elishay rad etdi. 17 Shunda No‘mon
aytdi:
— Unday bo‘lsa, men, qulingizga ikkita xachir ko‘tara oladigan tuproq olib ketishga
ijozat bering*. Men, qulingiz, bundan buyon Egamizdan boshqa xudolarga har xil
qurbonliklaru kuydiriladigan qurbonliklar qilmayman. 18 Egamiz men, qulingizni faqat
bitta narsada kechirsin: xo‘jayinim xudo Rimmon uyiga borib sajda qilish uchun

qo‘limga suyanganda, men ham Rimmon uyida u bilan birga ta’zim qilaman. O‘sha yerda ta’zim qilganimda, shu narsa uchun Egamiz meni kechirsin.

19 — Eson–omon bor, — dedi unga Elishay. No‘mon Elishay huzuridan chiqib, hali
uncha uzoq yo‘l yurmagan ham ediki, 20 Elishay payg‘ambarning xizmatkori Gaxazi
o‘ziga o‘zi aytdi: “Hazratim anavi Oram xalqidan No‘mon keltirgan hadyalarni qabul
qilmasdan, unga ijozat berdi. Xudo haqi! Ortidan yugurib borib, undan biror narsa
undiray.” 21 Gaxazi No‘monning orqasidan ketdi. No‘mon ortidan kelayotgan Gaxazini
ko‘rib, uni qarshi olgani aravadan tushdi.

— Tinchlikmi? — so‘radi No‘mon.

22 — Tinchlik, — dedi xizmatkor, — xo‘jayinim mendan aytib yubordi, uning
huzuriga Efrayim qirlaridagi payg‘ambarlar guruhidan ikkitasi kelibdi, ularga ikki pud*
kumush va ikki sidra kiyim–bosh berarkansiz.

23 — Balki to‘rt pud* olarsan, — dedi No‘mon va Gaxazini to‘rt pud olishga ko‘ndirdi.
No‘mon ikkita qopdagi to‘rt pud kumushni va ikki sidra kiyim–boshni bog‘lab, o‘zining
ikkita xizmatkoriga berdi. Xizmatkorlar bu narsalarni ko‘tarib, Gaxazining oldiga tushib
jo‘nadilar.

24 Tepalikka kelganlarida, Gaxazi narsalarni xizmatkorlarning qo‘lidan oldi va uyiga
olib borib yashirdi. So‘ngra No‘monning ikkala xizmatkoriga ijozat berdi. 25 Gaxazi
qaytib kelgach, xo‘jayinining huzuriga kirdi.

— Qayerda eding, Gaxazi? — so‘radi Elishay undan.

— Men, qulingiz, hech qayerga bormadim, — javob berdi u.

26 Elishay esa Gaxaziga:

— O‘sha odam aravasidan tushib senga peshvoz chiqqanda, mening ruhim sen bilan
birga emasmidi?! — dedi. — Hozir kumushu liboslar yoki zaytunzorlaru uzumzorlar,
qo‘yu sigirlar, qulu cho‘rilar oladigan paytmi?! 27 Shu qilganing uchun No‘monning teri
kasalligi senga va sening naslingga abadiy yopishib qolsin.

O‘sha zahoti Gaxaziga yara toshib, terisi qorday oppoq bo‘lib qoldi. U Elishayning
huzuridan chiqib ketdi.

6–BOB

Bolta suv yuziga chiqadi

1 Bir kuni payg‘ambarlar guruhi Elishayga:

— Qarang, siz bilan biz yig‘iladigan mana shu joyimiz tor, — dedilar. 2 — Ijozat
bering, Iordan daryosi bo‘yiga boraylik, har birimiz u yerda yog‘och kesib, o‘sha yerda
o‘zimizga boshpana quraylik.

— Mayli, boringlar, — dedi Elishay.

3 — Ulardan bittasi:

— Marhamat qilib, siz ham biz, qullaringiz bilan birga boring, — dedi.

— Xo‘p, boraman, — dedi Elishay. 4 Elishay ular bilan birga ketdi. Hammalari Iordan
daryosi bo‘yiga yetib kelib, daraxt kesa boshladilar. 5 Bittasi daraxt kesayotib, boltasini
suvga tushirib yubordi. U: “O, hazratim! Boltani omonatga olgan edim!” — deb baqirdi.

6 — Bolta qaysi joyga tushdi? — so‘radi payg‘ambar. O‘sha odam Elishayga bolta
tushgan joyni ko‘rsatdi. Elishay daraxtdan bitta shox kesib olib, suvga tashlagan edi,
bolta suv yuziga chiqdi.

7 — Ol uni, — dedi Elishay. O‘sha odam qo‘lini uzatib, boltani oldi.

Oram lashkari va Elishay

8 Oram shohi Isroilga lashkar tortdi va “Falon joyga lashkarimni joylashtiraman”, deb
lashkarboshilari bilan maslahatlashib oldi.
9 Payg‘ambar Isroil shohiga: “O‘sha joydan o‘tmang, chunki u yerga Oram lashkari
pistirma qo‘ygan” degan xabar yubordi. 10 Isroil shohi payg‘ambar aytgan joyga xabarchi
jo‘natdi. O‘sha yerda yashaydigan odamlar bu xavfning chorasini ko‘rdilar. Bunday
voqea bir–ikki marta emas, ko‘p marta yuz berdi.
11 Bu hodisadan Oram shohi qattiq bezovtalandi. U lashkarboshilarini chaqirib:
— Menga aytinglar–chi, qaysi biringiz Isroil shohi bilan aloqadasiz? — dedi ularga.
12 — Hech qaysimiz, shoh janoblari! — dedi lashkarboshilardan biri. — Bu Isroildagi
Elishay payg‘ambarning ishi, u hatto yotoqxonangizda aytgan gapingizni ham Isroil
shohiga ayon qilib turadi.
13 — Boringlar, uning qayerdaligini bilib kelinglar! — deb buyurdi Oram shohi. —
Men birortasini yuboraman–da, uni qo‘lga tushiraman.
Shundan keyin: “Elishay Do‘tanda*”, deb shohga xabar yetkazdilar. 14 Oram shohi
o‘sha yerga otliqlar, jang aravalari va katta kuch jo‘natdi. Ular tunda kelib, shaharni
o‘rab oldilar.
15 Tongda payg‘ambarning xizmatkori o‘rnidan turib, tashqariga chiqdi. Qarasa,
shahar atrofida otliq lashkar, jang aravalari turibdi. Shunda xizmatkor:
— Evoh! Hazratim, endi nima qilamiz? — deb so‘radi.
16 — Qo‘rqma, — dedi Elishay, — chunki bizning himoyachilarimiz ularnikidan juda
ko‘p.
17 Keyin Elishay iltijo qildi:
— Ey Egam! Xizmatkorimning ko‘zini och, u ko‘rsin!
Egamiz xizmatkorning ko‘zini ochib yubordi. Elishayning atrofidagi qirlar olovli otlar
va jang aravalariga to‘lib ketganini xizmatkor ko‘rdi.
18 Oram lashkari Elishayga hujum qilgan edi, Elishay Egamizga: “Ularni ko‘r qilib
qo‘y!” deb iltijo qildi. Egamiz Elishayning iltijosini eshitdi–da, Oram lashkarini ko‘r qilib
qo‘ydi.
19 Keyin, Elishay Oram lashkariga dedi:
— Sizlar adashib qolibsizlar, sizlar izlayotgan shahar bu emas. Ortimdan yuringlar,
men sizlarni izlayotgan odamingiz oldiga olib boraman.
Shunday qilib, Elishay Oram lashkarini Samariyaga boshlab keldi. 20 Ular Samariyaga
yetib kelganlaridan keyin Elishay:
— Ey Egamiz! Ularning ko‘zlarini och, toki ular ko‘rsin, — deb iltijo qilgan edi,
Egamiz Oram lashkarining ko‘zini ochdi. Ular qarasalar, Samariyaning o‘rtasida
turibdilar.
21 Isroil shohi Oram lashkarini ko‘rgach Elishaydan:
— Ularni qirib tashlaymi, ota? — deb so‘radi.
22 — Yo‘q, o‘ldirma! — dedi Elishay. — Nega o‘ldirar ekansan?! Sen ularni jang qilib
asir olganingda ham o‘ldirmasding. Ularga non, suv ber, yeb–ichib, o‘zlarining hukmdori
yoniga qaytib ketishsin.
23 Shoh asirlarga katta ziyofat tayyorladi. Asirlar yeb–ichib bo‘lishgach, Isroil shohi

ularni yo‘llariga qaytarib yubordi. Oram lashkari o‘z hukmdori yoniga ketdi. Bu bosqinchilar qaytib Isroil yerlariga qadam bosmadilar.

Samariyada ocharchilik

24 Oradan ancha vaqt o‘tgach, Oram shohi Banhadad* butun lashkarini yig‘ib
Samariyani qamal qildi. 25 Oram lashkari Samariyani qamal qilib turar ekan, u yerda
og‘ir qahatchilik yuz berdi. Natijada eshakning kallasi sakson kumush tangaga*, ikki
kosa kaptar axlati* besh kumush tangaga* sotildi.
26 Bir kuni Isroil shohi* shahar devori ustida ketayotgan edi, bir ayol: “Shoh
hazratlari! Yordam bering”, deb faryod qildi.
27 — Senga Egamiz yordam bermasa, men qanday yordam bera olaman?! — dedi
shoh. — Men bug‘doy yoki sharob bera olarmidim?! 28 Darding nima?
— Mana bu ayol: “O‘g‘lingni ber, uni bugun yeylik, mening o‘g‘limni ertaga yeymiz”,
deb aytgan edi. 29 Mening o‘g‘limni pishirib yedik. Ertasi kuni men unga: “O‘g‘lingni ber,
uni yeylik”, degan edim, u o‘g‘lini yashirib qo‘yibdi, — dedi u.
30 Shoh ayolning so‘zlarini eshitgach, qayg‘udan liboslarini yirtdi. Xalq devor ustida
ketayotgan shohning libosi ichidagi qanorni* ko‘rib qoldi. 31 So‘ngra shoh dedi:
— Agar shu bugun Elishayning boshi olinmasa, Xudo meni ne ko‘yga solsa solsin,
undan ham battarrog‘ini qilsin.
32 Shoh xabarchi jo‘natganda, Elishay o‘z uyida oqsoqollar bilan birga o‘tirgan edi.
Shoh yuborgan xabarchi Elishaynikiga kelmasdan oldin, Elishay oqsoqollarga aytdi:
— Ko‘ryapsizlarmi qotilni?! Mening boshimni olmoq uchun qotil o‘z odamini
jo‘natdi! Qarab turinglar, xabarchi kelganda, eshikni yopinglar, uni ichkariga
kiritmanglar. Hademay, xo‘jayinining o‘zi ham uning orqasidan yetib keladi!
33 Elishay oqsoqollar bilan suhbatlashib o‘tirganda, xabarchi uning oldiga kelib,
shohning quyidagi so‘zlarini yetkazdi: “Shuncha kulfat Egamizdan keldi! Nima uchun
men endi Unga umid bog‘lashim kerak?!”

7–BOB

1 Elishay aytdi:
— Egamizning so‘zini eshitinglar: U shunday demoqda: “Ertaga xuddi shu paytda
Samariya darvozasi oldida yarim tog‘ora* yaxshi un bir kumush tangadan*, bir tog‘ora*
arpa ham bir kumush tangadan sotiladi.”
2 Shohning eng yaqin amaldori shu yerda edi. U Elishayga:
— Hatto Egamiz osmonning qopqasini ochib, yomg‘ir yog‘dirganda ham shunday
bo‘lmas–ov, — dedi. Shunda Elishay:
— Sen ko‘zing bilan ko‘rasan, lekin senga nasib qilmaydi, — dedi.

Qamal tugaydi

3 Shu vaqtda shahar darvozasi tashqarisida teri kasalligiga* chalingan to‘rtta odam:
“O‘limimizni kutib, shu yerda o‘tiraveramizmi?!” deb bir–biriga gapirdi. 4 “Agar shaharga
kiradigan bo‘lsak, u yerda ocharchilik bo‘lyapti, biz ham o‘sha yerda o‘lib ketamiz. Shu
yerda o‘tiraversak ham o‘lamiz. Yaxshisi, Oram lashkarining qarorgohiga boraylik. Agar
bizni tirik qoldirishsa, yashaymiz, o‘ldirishsa, o‘lamiz.” 5 Ular oqshom payti Oram
lashkarining qarorgohiga bormoqchi bo‘lishib, otlanishdi. Oram lashkarining qarorgohi
chekkasiga kelib qarasalar, u yerda birorta ham odam yo‘q ekan.

6 Rabbiy Oram lashkariga jang aravalarining taqir–tuqurini, otlarning kishnashini,
ko‘p lashkarning shovqin–suronini eshittirgan edi. Ular bir–birlariga: “Isroil shohi bizga
qarshi hujum qilgani Xet va Misr lashkarlarini yollaganga o‘xshaydi”, dedilar. 7 Ular
oqshom payti jonlarini qutqarish uchun chodirlarini, otlarini, eshaklarini, butun
qarorgohni shundayicha tashlab qochib qolgan edilar.
8 O‘sha kasal odamlar qarorgohga kelib, bir chodirga kirdilar. Chodirda yeb–ichib, u
yerdan kumush, oltin, kiyim–kechaklarni olib ketib, yashirib qo‘ydilar. Keyin qaytib
kelib boshqa chodirga kirdilar, u yerdan ham topganlarini olib borib yashirdilar.
9 So‘ngra ular bir–birlariga aytdilar:
— Biz to‘g‘ri ish qilmayapmiz. Bu kun — xushxabarlar yuz bergan kundir. Agar biz
sustkashlik qilib, tong otishini kutsak, jazoga tortilishimiz aniq. Ketdik, shoh saroyiga
borib xabar beraylik.
10 Kasal odamlar borib, shahar darvozabonlarini chaqirdilar–da, ularga shunday
dedilar:
— Biz Oram lashkarining qarorgohiga borgan edik. U yerda na biror tirik jon bor, na
biror inson tovushi eshitiladi. Faqat bog‘lovliq otlar, eshaklar turgan ekan. Chodirlarni,
qanday turgan bo‘lsa, shundayligicha tashlab ketibdilar.
11 Darvozabonlar jar solib bu xushxabarni shoh saroyiga yetkazdilar. 12 Shoh tunda
o‘rnidan turib, lashkarboshilariga shunday dedi:
— Oram lashkari qanday reja tuzayotganlarini sizlarga aytib qo‘yay. Biz
qahatchilikni boshdan kechirayotganimizni ular biladi. Shahardan chiqqanimizdan
keyin, bizni tiriklayin qo‘lga olib, shaharga yorib kirishni rejalashtirgan. Shu maqsadda
dalada pistirma qo‘yish uchun qarorgohdan chiqib ketgan.
13 Shohning a’yonlaridan biri dedi:
— Shu paytgacha qancha odam o‘ldi, shaharda qolganlarimiz ham baribir o‘limga
mahkummiz! Endi bir nechta odamni yuboraylik. Ular shaharda qolgan otlardan
beshtasini olsin va borib, ahvolni bilib kelsin.
14 Ular ikkita otliq odamni tayyorladilar. Shoh o‘sha odamlarni Oram lashkari izidan
jo‘natar ekan: “Borib, nima bo‘lganini bilib kelinglar”, dedi.
15 Otliqlar Oram lashkarining izidan Iordan daryosigacha borishdi. Yo‘l bo‘yi kiyim–
kechak, buyumlar sochilib ketgan edi. Bu narsalarni Oram lashkari shoshib–pishib
qochayotganlarida tashlab ketgan edilar. Yuborilgan odamlar qaytib kelib, shohga xabar
berdilar.
16 Xalq Oram lashkarining qarorgohiga borib, u yerni talon–taroj qildi. Egamiz
aytganiday, yarim tog‘ora yaxshi un bir kumush tangadan, bir tog‘ora arpa ham bir
kumush tangadan sotildi.
17 Shoh o‘sha yaqin amaldorini darvozaga tayinlagan edi. Xalq amaldorni darvoza
oldida bosib, yanchib o‘tib ketdi, amaldor o‘ldi. Shoh payg‘ambar huzuriga borganda,
payg‘ambar bo‘ladigan hodisalarni unga oldindan aytgan edi. 18 Hammasi payg‘ambar
aytganiday bo‘ldi. U shohga: “Ertaga xuddi shu paytda Samariya darvozasi oldida yarim
tog‘ora yaxshi un bir kumush tangadan, bir tog‘ora arpa bir kumush tangadan sotiladi”,
degan edi. 19 Amaldor esa payg‘ambarga: “Hatto Egamiz osmonning qopqasini ochib,
yomg‘ir yog‘dirganda ham, shunday bo‘lmas–ov”, deb javob bergan edi. Elishay esa
unga: “Sen ko‘zing bilan ko‘rasan, lekin senga nasib qilmaydi”, degandi. 20 Shunday qilib,
aytilgan voqea yuz berdi: xalq o‘sha amaldorni darvoza oldida bosib, yanchib o‘tib ketdi,

amaldor oʻldi.

8–BOB

Shunamlik ayol qaytib keladi

1 Elishay oʻzi tiriltirgan bolaning* onasiga shunday degan edi:
— Tur oʻrningdan, oʻzing va xonadoning ahli bilan birga joʻna. Qayerda yashay olsang, oʻsha yerda yashayver, chunki Egamiz yurtga yetti yil qahatchilik yuborishga qaror qildi.
2 Ayol paygʻambarning aytganlariga quloq soldi. Uning oʻzi va xonadoni ahli Filistlar yeriga borib, u yerda yetti yil istiqomat qildi. 3 Oradan yetti yil oʻtgach, oʻsha ayol Filistlar yeridan qaytib keldi. Soʻng uyimni va dalamni qaytarib olay deb, shoh huzuriga keldi.
4 Shu paytda shoh Elishayning xizmatkori Gaxazi bilan gaplashayotgan edi:
— Elishay qilgan hamma ajoyibotlar haqida menga aytib ber–chi, — dedi shoh.
5 Paygʻambar oʻlikni qanday tiriltirganini Gaxazi shohga gapirayotgan edi, haligi ayol shohdan oʻz uyi va dalasini qaytarib olish uchun soʻrab kelib qoldi.
— Shoh hazratlari! — dedi Gaxazi. — Bu oʻsha ayoldir. Ana, Elishay tiriltirgan oʻgʻli ham yonida turibdi.
6 Shoh ayoldan boʻlib oʻtgan voqealarni soʻradi. Ayol shohga hammasini aytib berdi. Shundan soʻng shoh saroy amaldorlaridan birini chaqirib, ayol bilan birga joʻnatar ekan, amaldorga amr berdi:
— Bu ayolning hamma narsasi, bu yurtdan chiqib ketgan kundan boshlab bugungacha olingan jamiki daromadi bilan birga dalasi qaytarilsin.

Elishay va Oram shohi Banhadad

7 Elishay Damashqqa keldi. Oram shohi Banhadad xasta edi. “Paygʻambar shu yerga kelibdi”, deb shohga xabar yetkazishdi. 8 Shoh shunda Xazayil degan odamga* dedi:
— Birorta hadya olgin–da, paygʻambarga peshvoz chiq. U orqali Egamizdan soʻrab koʻr–chi, men shu kasallikdan xalos boʻlarmikanman.
9 Xazayil Damashqdagi eng yaxshi hadyalardan qirqta tuyaga yuklab, Elishayni kutib olgani ketdi. Elishayning oldiga kelgach, unga shunday dedi:
— Oram shohi — qulingiz Banhadad meni sizning huzuringizga yubordi. “Shu kasallikdan xalos boʻlarmikanman yoki yoʻqmikan, bilib kel”, dedi.
10 — Shohning huzuriga borib, albatta sogʻayib ketarkansiz, deb ayt, — dedi Elishay Xazayilga, — lekin Egamiz menga ayon qildi: shoh oʻladi.
11 Xazayil uyatdan qizarguncha, Elishay uning yuziga tik qarab turaverdi. Keyin paygʻambar yigʻlay boshladi.
12 — Hazratim nechun yigʻlayaptilar? — deb soʻradi Xazayil.
— Isroil xalqiga qiladigan yovuzliklaringni bilganim uchun yigʻlayapman, — dedi Elishay. — Sen Isroil xalqining qal’alariga oʻt qoʻyasan, yigitlarini qilichdan oʻtkazasan, goʻdaklarini yerga urib oʻldirasan, homilador ayollarning qornini yorib tashlaysan.
13 — Koʻppakdan farq qilmaydigan men, qulingiz, kim boʻlibmanki, shunaqa ishlarni qila olar ekanman?! — dedi Xazayil.
— Egamiz menga ayon qildi: sen Oram shohi boʻlasan*, — deya javob berdi Elishay.
14 Xazayil Elishayning huzuridan chiqib, hukmdori Banhadadning yoniga qaytib

keldi.

— Elishay senga nima dedi? — so‘radi shoh Xazayildan.

— U menga aytdiki, siz albatta sog‘ayib ketarkansiz, — deb javob berdi Xazayil.
15 Ertasi kuni Xazayil ko‘rpani olib, suvga botirdi–da, ho‘l ko‘rpani shohning yuziga
yopib, uni bo‘g‘di. Shunday qilib, Xazayil shohni o‘ldirib, uning o‘rniga o‘zi shoh bo‘ldi.

Yahudo shohi Yohuram

16 Yohushafat hali Yahudo shohi bo‘lib turganda, uning o‘g‘li Yohuram ham taxtga
o‘tirdi*. Bu voqea Isroil shohi Yoram hukmronligining beshinchi yilida yuz berdi.
17 Yohuram Yahudo shohi bo‘lganda, o‘ttiz ikki yoshda edi. U Quddusda sakkiz yil
hukmronlik qildi.
18 Xotini Axabning qizi bo‘lgani uchun Yohuram ham, Axab xonadoni singari, Isroil
shohlari yo‘lidan yurib, Egamiz oldida qabihliklar qildi. 19 Egamiz O‘z quli Dovud haqi–
hurmati uchun Yahudoni halokatga uchratishni istamadi, chunki Egamiz Dovudga:
“Sening naslingga to abad so‘nmaydigan chiroq beraman”, deb va’da qilgan edi.
20 Yohuram davrida Edom Yahudo shohligiga qarshi isyon qildi. Edom xalqi
o‘zlarining mustaqil shohligini qurdilar. 21 Shundan so‘ng Yohuram* hamma jang
aravalarini boshlab Zoirga bordi. Edom lashkari Yohuramni va uning jang aravalari
sardorlarini o‘rab olgan edi, lekin Yohuram tunda hujum qilib, qamalni yorib chiqdi.
Yahudo lashkari uylariga qochib ketdi. 22 O‘sha paytdan beri hozirgacha* Edom xalqi
Yahudo hukmronligidan ozoddir. O‘sha davrda Libna shahri* ham isyon ko‘targan edi.
23 Yohuramning boshqa ishlari, butun faoliyati “Yahudo shohlari tarixi” kitobida
yozilgan. 24 Yohuram olamdan o‘tdi. U Dovud qal’asida, ota–bobolari yoniga dafn qilindi.
Uning o‘rniga o‘g‘li Oxoziyo shoh bo‘ldi.

Yahudo shohi Oxoziyo

25 Isroil shohi Yoram o‘n ikkinchi yil shohlik qilayotganda, Oxoziyo Yahudo shohi
bo‘ldi. U Yohuramning o‘g‘li edi. 26 Oxoziyo taxtga o‘tirganda, yigirma ikki yoshda edi. U
Quddusda bir yil shohlik qildi. Onasining ismi Otaliyo bo‘lib, Isroil shohi Omrining
nevarasi edi. 27 Oxoziyo ham Axab xonadonining yo‘lidan ketdi. Axab nasliga o‘xshab,
Egamiz oldida qabihliklar qildi. Chunki u Axab xonadoniga qarindosh edi.
28 Oxoziyo bilan Yoram birga Giladdagi* Ramo‘tga borib, Oram shohi Xazayilga
qarshi urush ochdi. Shoh Yoram shu urushda yarador bo‘ldi. 29 U yarasini davolatish
uchun Yizril shahriga* qaytib keldi. Yahudo shohi Oxoziyo esa yaralangan Yoramni
ko‘rgani Yizrilga bordi.

9–BOB

Yohu Isroil ustidan shoh qilib tayinlanadi

1 Elishay payg‘ambarlar guruhidan bittasini chaqirib, unga dedi:

— Qani, bo‘l, qo‘lingga anavi moy solingan idishni ol, Giladdagi Ramo‘tga bor. 2 U
yerga borganingdan keyin, Yohuni qidirib top. Nimshi deganning nabirasi Yohu
Yahoshafat degan odamning o‘g‘lidir. Uni o‘rtoqlari orasidan chaqirib chiqib, boshqa
xonaga olib kir. 3 So‘ngra moy solingan idishni ol. Yohuning boshiga moyni surtgin–da,
shunday degin: “Egamiz shunday aytmoqda: senga moy surtib, Isroil ustidan shoh qilib
tanladim.” Keyin eshikni ochgin–u, kutmasdan qoch.

4 Yosh payg‘ambar Giladdagi Ramo‘tga ketdi. 5 O‘sha joyga yetib kelganda,
lashkarboshilar suhbatlashib o‘tirgan edi.
— Senda gapim bor, lashkarboshi, — dedi u.
— Qaysi birimizda gaping bor? — deb so‘radi Yohu.
— Senda, lashkarboshi, — dedi u Yohuga. 6 Yohu o‘rnidan turib, boshqa xonaga kirdi.
Yosh payg‘ambar uning boshiga moyni surtgach, dedi:
— Isroil xalqining Xudosi — Egamiz shunday aytmoqda: “Senga moy surtib,
O‘zimning xalqim Isroil ustidan shoh qilib tayinladim. 7 Sen hukmdoring Axabning
xonadonini qirib tashlaysan, toki payg‘ambar qullarim va boshqa hamma qullarimning
to‘kilgan qonlari uchun Men Izabeldan o‘ch olay. 8 Axabning butun xonadoni yo‘q
bo‘ladi. Isroilda Axabning urug‘idan har bir erkak zotini, xoh qul bo‘lsin, xoh ozod
bo‘lsin, qirib tashlayman. 9 Axab xonadonini Nabat o‘g‘li Yeribomning xonadoni va Oxiyo
o‘g‘li Bashoning xonadoni ko‘yiga solaman. 10 Izabel esa Yizril yerlarida itlarga yem
bo‘ladi, uni dafn qiladigan hech kimsa bo‘lmaydi.”
U shunday deb eshikni ochdi–yu, qochdi.
11 Yohu lashkarboshi do‘stlari oldiga qaytdi.
— Tinchlikmi? Anavi telba sening oldingga nima uchun kelibdi? — deb so‘rashdi
do‘stlari undan.
— E, bunaqa odamlarni bilasizlar–ku, valdirayveradilar–da, ular, — dedi Yohu
do‘stlariga.
12 — Ey yolg‘onchi! Qani, bizga ham ayt–chi, — deyishdi ular.
Yohu do‘stlariga: “Egamiz menga moy surtib Isroil ustidan shoh qilib tayinlabdi”, deb
payg‘ambarning gaplarini aytib berdi.
13 Hammalari shoshilib qolishdi. Har kim liboslarini yechib, Yohu turgan zinapoyaga
to‘shadilar va burg‘u chalib: “Yohu shoh bo‘ldi!” deb jar soldilar.

Yohu Yoramni o‘ldiradi

14 Yohu Yoramga qarshi fitna uyushtirdi.
Bu paytda butun Isroil lashkari shoh Yoram boshchiligida Giladdagi Ramo‘t shahrini
Oram shohi Xazayildan himoya qilayotgan edi. 15 Yoram* Xazayil bilan jang qilganda,
Oram lashkari uni yaralagan, Yoram esa yaralarini davolatish uchun Yizrilga qaytgan
edi*.
Yohu do‘stlariga:
— Agar sizlar men tomonda bo‘lsangizlar, shahardan biror kimsa chiqib ketishiga va
Yizrilga xabar olib borishiga yo‘l qo‘ymanglar, — dedi. 16 Yohu otiga minib, Yizril
shahriga yo‘l oldi, chunki Yoram kasal bo‘lib, u yerda yotgan edi.
Yahudo shohi Oxoziyo ham Yoramni ko‘rgani kelgan edi.
17 Yizril minorasi ustida qorovul turardi.
Yohuning odamlari yaqinlashib kelardi. Qorovul ularni ko‘rib qolib: “Bir talay
odamni ko‘ryapman”, dedi. Yoram qorovulga aytdi:
— Birorta otliqni yubor, odamlarni kutib olib: “Tinchlik bilan kelyapsizlarmi?” deb
so‘rasin.
18 Suvori Yohuga peshvoz chiqib dedi:
— Shoh: “Tinchlik bilan kelyapsizlarmi?” deb so‘rayapti.
— Tinchlikdan senga nima?! Orqamdan yur, — dedi Yohu. Qorovul esa: “Otliq

ularning oldiga yetib bordi–yu, lekin qaytib kelmayapti”, deb xabar berdi.
19 Endi boshqa bir otliqni yuborishdi, bunisi ham ularning oldiga kelib:
— Shohimiz: “Tinchlik bilan kelyapsizlarmi?” deb so‘rayapti, — dedi.
— Tinchlikdan senga nima?! Orqamdan yur, — dedi Yohu.
20 Qorovul: “Otliq ularning oldiga yetib bordi–yu, qaytib kelmadi, o‘pkasi og‘ziga tiqilganday hovliqib ot choptirib kelishidan Yohuga o‘xshaydi”, deb xabar yetkazdi.
21 — Aravani qo‘sh! — deb buyurdi Yoram. Shohning jang aravasini qo‘shdilar. Isroil shohi Yoram va Yahudo shohi Oxoziyo o‘z aravalariga minib, Yohuni kutib olgani chiqdilar. Ular Yohuni Yizrillik Navo‘tning dalasida* kutib oldilar. 22 Yoram Yohuni ko‘rgach, unga:
— Tinchlik bilan keldingmi, Yohu? — deb so‘radi.
— Onang Izabel boshlagan zinoyu sehr–jodu bizda hanuzgacha davom etib kelar ekan, qanaqasiga tinchlik bo‘lsin?! — dedi Yohu.
23 Yoram Oxoziyoga: “Qochdik, Oxoziyo! Xoinlik bu!” dedi–yu, ot tizginini burib, qochib qoldi. 24 Yohu kamonni kuchi boricha tortib, Yoramning ikkala kuragi o‘rtasini mo‘ljallab otdi. O‘q Yoramning qoq yuragini teshib o‘tdi. Yoram aravasi ichiga yiqildi.
25 Yohu xizmatkori Bidkarga dedi:
— Uning jasadini Yizrillik Navo‘tning dalasiga olib borib tashla, shuni yodingdan chiqarmaginki, biz, ikkovimiz, Yoramning otasi Axabning ortidan jang aravasida borganimizda, Axabga qarshi Egamiz shuni ayon qilgan edi: 26 “Kecha Navo‘t bilan uning o‘g‘illari qonini ko‘rdim. Sendan o‘sha dalada qasos olaman.” Endi Egamizning aytganiga ko‘ra, Yoramning jasadini olib, Navo‘tning dalasiga olib borib tashla.

Yahudo shohi Oxoziyo o‘ldiriladi

27 Yahudo shohi Oxoziyo bu hodisani ko‘rib, Bayt–Xagon shahriga qarab qochdi*. Yohu uning ortidan quvib ketayotganda:
— Uni ham o‘ldiringlar! — deb baqirdi. Yiblayom shahri yonidagi Gur tepaligida aravasida turgan Oxoziyoni otdilar. Oxoziyo Magido‘ shahriga qochib borib, o‘sha yerda jon berdi. 28 A’yonlari uning jasadini aravada Quddusga olib keldilar va Dovud qal’asida, ota–bobolari xilxonasiga dafn qildilar.
29 Axab o‘g‘li Yoram hukmronligining o‘n birinchi yilida Oxoziyo Yahudo shohi bo‘lgan edi.

Izabel o‘ldiriladi

30 Yohu Yizrilga bordi. Izabel esa bu xabarni eshitib ko‘zlariga surma surtib, sochlarini tarab, derazadan qarab turgan edi. 31 Yohu shahar darvozasidan kirgach, Izabel:
— Ha, senmisan, hukmdorini o‘ldirgan Zimridan* qolishadigan joying yo‘q! Tinchlik bilan keldingmi? — dedi.
32 Yohu ko‘zlarini derazaga qadab:
— Kim men tomonda? Kim? — deb baqirdi. Tepada haram og‘alaridan ikki–uchtasi paydo bo‘ldi. 33 — Uni pastga uloqtiringlar! — deb buyurdi Yohu. Ular Izabelni ushlab pastga uloqtirdilar. Uning qoni devorga, otlarga sachradi, Yohuning oti jasadni ezg‘ilab tashladi.
34 Shundan keyin Yohu kelib, yeb–ichdi. So‘ngra:
— Anavi la’natini topib, ko‘minglar, — dedi, — nima bo‘lganda ham, shoh qizi–da*.

35 Lekin Izabelning jasadini dafn qilishga borgan odamlar, uning bosh suyagi, oyog‘i
va qo‘l panjasidan boshqa biror a’zosini topa olmadilar. 36 Hammalari qaytib kelib,
Yohuni ahvoldan xabardor qildilar. Yohu ularga shunday dedi:
— Egamizning O‘z quli Ilyos orqali aytgan bu so‘zlari bajo bo‘ldi*:

“Izabelning jasadi Yizril yerlarida ko‘ppaklarga yem bo‘lar,
37 Uning jasadi Yizril dalalaridagi go‘ngga o‘xshab qolar,
Shuning uchun hech kim, bu Izabeldir, deb aytmas.”

10–BOB

Axab xonadoni o‘ldiriladi

1 Axabning Samariya shahrida yetmishta o‘g‘li bor edi. Yohu Samariyadagi
oqsoqollarga va Axab o‘g‘illarining murabbiylariga hamda Yizril beklariga shu
mazmunda maktub yozib yubordi:
2 “Shohingizning o‘g‘illari sizlar bilan birga turibdilar, jang aravalaringiz, otlaringiz
va qurol–yarog‘laringiz ham bor, o‘zlaringiz mustahkam shaharda yashaysizlar. Ushbu
maktub sizlarga yetib borishi bilanoq, 3 hukmdoringiz o‘g‘illaridan eng munosibini
tanlab olib, otasining o‘rniga taxtga o‘tqazinglar va hukmdoringizning xonadonini
himoya qilish uchun men bilan jang qilishga tayyorlaninglar.”
4 Ammo Samariyadagilar juda qo‘rqib ketdilar:
— Yohuga ikkita shoh bardosh berolmadi–yu, biz qanday qilib bardosh berardik?! —
deyishdi ular. 5 Shundan keyin bosh vazir, shahar hokimi, oqsoqollar, Axab o‘g‘illarining
murabbiylari Yohuga shunday xabar berishdi: “Biz hech kimni shoh qilmaymiz. Biz
sizning qullaringizmiz, nima buyursangiz, shuni ijro qilarmiz, sizga nima ma’qul bo‘lsa,
shuni qiling.”
6 Yohu esa ularga ikkinchi marta shu mazmunda maktub yozdi: “Agar sizlar men
tarafda bo‘lib, menga itoat etishga tayyor bo‘lsangizlar, hukmdoringiz o‘g‘illarining
boshlarini olib, ertaga shu paytda Yizrilga, mening huzurimga keltiringlar.” Shohning
yetmishta o‘g‘li bo‘lib, ularni shaharning eng aslzodalari tarbiya qilayotgan edilar.
7 Maktub aslzodalarning qo‘liga tekkach, ular shoh o‘g‘illarini ushlab, hammalarini —
yetmish kishini bo‘g‘izladilar, ularning boshlarini savatga solib, Yizrilga, Yohuning
huzuriga jo‘natdilar.
8 Xabarchi Yohuga: “Ular shoh o‘g‘illarining boshlarini olib keldilar”, dedi. Yohu:
“Kallalarni darvoza oldiga ikki to‘p qilib taxlanglar, ertalabgacha o‘sha yerda qolsin”,
dedi.
9 Ertasiga ertalab Yohu xalqning oldiga chiqib gapirdi:
— O‘z hukmdorimga qarshi men isyon ko‘tarib, uni o‘ldirdim. Sizlar aybdor
emassizlar. Lekin mana bu odamlarni kim o‘ldirdi? 10 Shuni bilib qo‘yinglarki,
Egamizning Axab xonadoni to‘g‘risida aytgan bironta so‘zi ijrosiz qolmaydi. Egamiz O‘z
quli Ilyos orqali aytgan so‘zini bajo qildi*.
11 So‘ngra Yohu Yizrilda Axab xonadonining qolgan–qutganini, uning hamma
a’yonlarini, yaqinlarini, ruhoniylarini o‘ldirdi. Shunday qilib, Axabning bironta ham
odami tirik qolmadi.

Shoh Oxoziyoning qarindoshlari o‘ldiriladi

12 Shundan keyin Yohu Yizrildan Samariya tomon yo‘lga chiqdi. U yo‘lda
cho‘ponlarga qarashli Bayt–Akad degan joyda 13 Yahudo shohi Oxoziyoning
qarindoshlari bilan uchrashib qoldi va ulardan: “Sizlar kimsizlar?” deb so‘radi.

— Biz Oxoziyoning qarindoshlarimiz, — deyishdi ular. — Shohning oilasidan va
malika Izabelning o‘g‘illaridan xabar olgani ketyapmiz.

14 — Bularni tiriklayin ushlanglar! — deb buyurdi Yohu odamlariga. Ularni tiriklayin
ushlab hammalarini — qirq ikkita odamni Bayt–Akad sardobasi yonida bo‘g‘izladilar.
Ulardan birortasini ham tirik qoldirmadilar.

Axabning boshqa qarindoshlari o‘ldiriladi

15 Yohu u yerdan jo‘nab ketdi. Yo‘lda unga peshvoz chiqqan Yohunadav bilan
uchrashib qoldi. Yohunadav Raxav degan odamning o‘g‘li edi. Yohu u bilan salomlashib:

— Senga mening niyatim xolis, sening niyating ham xolismi? — deb so‘radi.

— Shunday, — deb javob berdi Yohunadav.

— Unday bo‘lsa, qo‘lingni ber, — dedi Yohu. Yohunadav qo‘lini uzatdi. Yohu uni
yoniga — aravasiga oldi.

16 — Men bilan yur, men Egamiz uchun qanchalik jon kuydirishimni ko‘rib qo‘y, —
dedi Yohu unga. So‘ngra uni aravasida Samariyaga olib ketdi. 17 Yohu Samariyaga yetib
kelgach, Egamiz Ilyos orqali aytganiday, Axabning u yerdagi qolgan–qutgan
qarindoshlarini bitta qo‘ymay o‘ldirdi.

Baalga sig‘inganlar o‘ldiriladi

18 Yohu jamiki xalqni to‘plab, ularga aytdi:

— Axab Baalga unchalik sig‘inmas edi, men esa Baalga chin dildan sig‘inaman.
19 Endi mening oldimga Baalning hamma payg‘ambarlarini chaqirib kelinglar, hech kim
kelmay qolmasin, chunki men Baalga juda katta qurbonlik qilaman, kelmaganlar
o‘ldiriladi.

Aslida Yohu Baalga sig‘inganlarni o‘ldirish maqsadida bir hiyla o‘ylayotgan edi.

20 — Baalga bag‘ishlangan bayram yig‘ini bo‘lishini tayinlanglar, — dedi Yohu.

Bu to‘g‘rida e’lon qildilar. 21 Yohu butun Isroil bo‘ylab xabar jo‘natgan edi, Baalga
sajda qiluvchilarning hammasi keldi, birontasi ham kelmay qolmadi. Hamma Baalning
uyiga* kirdi. Baalning uyi liq to‘ldi. 22 Yohu muqaddas liboslarni saqlovchi xizmatkorga:

— Baalga sig‘inadiganlarning hammasiga liboslar keltir, — deb amr berdi.

Xizmatkor har biriga libos keltirdi. 23 Shu payt Yohu Yohunadav bilan birga Baalning
uyiga kirdi–da, sajda qiluvchilarga:

— Atrofingizga yaxshilab qarang, — dedi. — Orangizda Egamizga xizmat
qiladiganlardan hech kim bo‘lmasin, bu yerda faqat Baalga sajda qiluvchilar bo‘lsin.

24 Shundan keyin Yohu bilan Yohunadav kuydiriladigan va boshqa qurbonliklarni
keltira boshladilar. Bundan oldin esa Yohu Baalning uyi atrofiga sakson kishini qo‘yib,
ularga shunday amr bergan edi: “Qo‘lingizga mana bu odamlarni topshiryapman.
Bulardan birortasi ham qochib qolmasin. Kim qochishiga yo‘l qo‘ysa, boshi bilan javob
beradi.”

25 Yohu qurbonliklarni kuydirib bo‘lishi bilanoq qo‘riqchilarga va lashkarboshilarga:
“Ichkariga kirib, hammani o‘ldiringlar, birortasi ham qochib ketmasin!” — deb buyruq
berdi. Qo‘riqchilar va lashkarboshilar hammasini qilich damidan o‘tkazib, jasadlarini

tashqariga otdilar. So‘ngra Baalning uyidagi ichkari xonaga kirib, 26 u yerdagi butsimon
ustunlarni tashqariga olib chiqib, yoqib yubordilar. 27 Baalga atalgan toshni* sindirdilar,
uyini vayron qildilar. Xalq bu joyni hojatxonaga aylantirdi. O‘sha joy bugungacha*
hojatxona bo‘lib qolgan.
28 Shunday qilib, Yohu Isroil yerida Baalga sajda qilishga barham berdi. 29 Biroq Yohu
Isroil xalqini gunohga botirgan Nabat o‘g‘li Yeribom qilgan gunohlarga ergashdi, ya’ni
Baytil va Dandagi oltin buzoqlarga sajda qilishdan* u qaytmadi.
30 Egamiz Yohuga:
— Mening oldimda to‘g‘ri ish qilib muvaffaqiyat qozonding, — dedi. — Axab
xonadoniga qarshi Men nima istagan bo‘lsam, hammasini qilding. Buning uchun sening
nasling to‘rtinchi avlodigacha Isroil taxtida o‘tiradi.
31 Ammo Yohu Isroil xalqining Xudosi — Egamizning qonunlariga butun qalbi bilan
itoat qilmadi, Isroil xalqini gunohga botirgan Yeribom qilgan gunohlarga ergashdi.

Yohuning o‘limi

32-33 O‘sha paytda Egamiz Isroil yerlarini parchalab, kichraytira boshladi.
Oram shohi Xazayil Iordan daryosining sharqida Gad, Ruben, Manashe qabilalari
yashaydigan butun Gilad yerlarini, Arnon soyligidagi Aror shahridan Gilad va Bashan
o‘lkalariga qadar bo‘lgan jamiki Isroil yerlarini bosib oldi.
34 Yohuning boshqa ishlari, butun faoliyati va qahramonliklari haqida “Isroil shohlari
tarixi” kitobida yozilgan. 35 Yohu olamdan o‘tdi. U Samariyada ota–bobolari yoniga dafn
qilindi. Uning o‘rniga o‘g‘li Yohuxoz shoh bo‘ldi. 36 Yohu Samariyada yigirma sakkiz yil
Isroilga hukmronlik qildi.

11–BOB

Yahudo malikasi Otaliyo

1 Otaliyo* o‘z o‘g‘li shoh Oxoziyoning o‘ldirilganini eshitgach, Yahudoda Oxoziyoning
jamiki urug‘ini qirib tashlashga kirishdi. 2 Shohning hamma o‘g‘illarini o‘ldirish
rejalashtirilgan edi. Shoh Yohuramning* Yohusheva* degan qizi bor edi. Yohusheva
Oxoziyoga o‘gay singil edi. Yohusheva Oxoziyoning o‘g‘li Yo‘shni shohning o‘g‘illari
orasidan bildirmasdan olib qochdi. Otaliyo bolani o‘ldirmasligi uchun uni enagasi bilan
birga Egamizning uyidagi yotoqxonaga yashirdi. 3 Otaliyo yurtni boshqargan paytda,
bola olti yil davomida Egamizning uyida enagasi bilan birga yashirinib yurdi.
4 Yettinchi yili ruhoniy Yohayido Xaryollik qo‘riqchilarning* lashkarboshilariga va
saroy qo‘riqchilarining lashkarboshilariga xabar berib, ularni chaqirtirdi. Hammalarini
Egamizning uyiga yig‘ib, ular bilan ahd tuzdi. Hammalariga Egamizning uyida ont
ichirgandan keyin, shohning o‘g‘li Yo‘shni ularga ko‘rsatdi. 5 Yohayido ularga shunday
buyurdi: “Endi sizlar bunday qilasizlar: Shabbat kuni xizmatda bo‘lgan qo‘riqchilarning
uchdan biri shoh saroyini qo‘riqlashadi. 6 Uchdan biri Sur darvozasini, uchdan biri esa
saroy darvozasini qo‘riqlashadi va saroy qo‘riqchilari o‘rniga turishadi. 7 Shabbat kuni
xizmatda bo‘lmagan boshqa ikki qism sipohlaringiz esa Egamizning uyi atrofida turib
shohni qo‘riqlasin. 8 Hamma qo‘lida quroli bilan shohni har tomondan o‘rab olsin, kim
safga yaqinlashsa, o‘ldirilsin. Shoh kirganda ham, chiqqanda ham, unga hamroh
bo‘linglar.”
9 Yuzboshilar ruhoniy Yohayidoning amrlarini so‘zsiz bajardilar. Har bir yuzboshi

Shabbat kuni xizmatini boshlagan va xizmatini tugatgan qo‘riqchilarini olib,
Yohayidoning yoniga bordi. 10 Ruhoniy Egamizning uyida turgan shoh Dovudning
nayzalariyu qalqonlarini yuzboshilarga tarqatdi. 11 Shohni qo‘riqlash uchun uyning
janub tomonidan shimol tomonigacha, qurbongohning va uyning atrofiga soqchilar
jangga shay holda qo‘yildi.
12 Yohayido Yo‘shni tashqariga olib chiqib, boshiga toj kiydirdi. Unga shohlik
qonunlarini* berdi. Yo‘sh shoh deb e’lon qilindi. Uning boshiga moy surtishdi, so‘ngra:
“Shohimizning umrlari uzoq bo‘lsin!” deya olqishlab, qarsak chaldilar.
13 Otaliyo qo‘riqchilar bilan xalqning shovqin–suronini eshitgach, Egamizning uyiga,
u yerda yig‘ilganlarning yoniga bordi. 14 Qarasaki, odatga ko‘ra, Egamizning uyiga
kiraverishdagi ustun oldida shoh turibdi, shohning atrofini lashkarboshilar,
karnaychilar o‘rab olgan. Yurtning butun xalqi shod–xurram, karnay chalyapti. Shunda
Otaliyo g‘azabdan liboslarini yirtib: “Xoinlik! Xoinlik!” deb baqirdi.
15 Ruhoniy Yohayido yuzboshilarga: “U xotinni bu yerdan olib chiqib ketinglar, kimki
unga ergashsa, qilichdan o‘tkazinglar”, deb buyruq berdi. Ruhoniy o‘sha ayolning
Egamiz uyida o‘ldirilishini istamadi. 16 Otaliyo ushlandi va saroyning Ot darvozasiga
keltirilib, o‘sha yerda qatl qilindi.

Yohayido qilgan islohotlar

17 Ruhoniy Yohayido xalq, shoh va Egamiz orasida “Biz Egamizning xalqi bo‘lamiz”
deb ahd tuzdi. Undan keyin xalq bilan shoh orasida ham ahd tuzdi. 18 So‘ng butun xalq
Baalning uyiga borib, uni buzib tashladi, u yerdagi qurbongohlarni va Baalning
tasvirlarini sindirdi, Baalning ruhoniysi Mattonni esa qurbongohlarning ro‘parasida
o‘ldirdi. Ruhoniy Yohayido Egamizning uyiga qo‘riqchilar tayin qildi. 19 So‘ngra
yuzboshilarni, Xaryollik qo‘riqchilarni, saroy qo‘riqchilarini va jamiki xalqni yoniga olib,
shohni Egamizning uyidan olib chiqdi. Ular qo‘riqchilar darvozasidan o‘tib, shohni
saroyga olib keldilar va taxtga o‘tqazdilar. 20 Otaliyo shoh saroyida o‘ldirilgani uchun
yurt xalqi sevindi. Quddus osoyishta bo‘lib qoldi. 21 Yo‘sh* taxtga o‘tirgan paytda yetti
yoshda edi.

12–BOB

Yahudo shohi Yo‘sh

1 Isroil shohi Yohu hukmronligining yettinchi yilida Yo‘sh* Yahudo shohi bo‘lgan edi.
U Quddusda qirq yil hukmronlik qildi. Onasi Bersheba shahridan bo‘lib, ismi Zibiyox edi.
2 Yo‘sh umri bo‘yi Egamiz oldida to‘g‘ri ishlar qildi, chunki ruhoniy Yohayido unga
yo‘l ko‘rsatardi. 3 Lekin sajdagohlar* hamon yo‘q qilinmagan, xalq hali ham o‘sha
joylarda qurbonlik qilib, tutatqi tutatardi.
4 Yo‘sh ruhoniylarga farmon berdi:
— Egamizning uyiga ehson sifatida olib kelingan kumushni, doimiy soliqni, va’da
qilingan nazrni va ixtiyoriy berilgan hadyalarni to‘planglar. 5 Bu kumushlarni ruhoniylar
olib keluvchilardan qabul qilib olib, Egamiz uyining buzilgan joylarini tuzatishga
sarflashsin.
6 Yo‘sh hukmronligining yigirma uchinchi yilida ham ruhoniylar Egamiz uyining
buzilgan joylarini hali tuzatmagan edilar. 7 Shundan keyin shoh Yo‘sh ruhoniy Yohayido
bilan boshqa ruhoniylarni chaqirib:

— Nimaga Egamizning uyini tuzatmayapsizlar? — dedi ularga, — endi odamlardan kumush olmanglar. Olgan kumushlaringizni Egamizning uyini tuzatishga beringlar.
8 Ruhoniylar xalqdan o‘zlari pul yig‘maslikka va Egamizning uyi ta’mirlanishini
nazorat qilmaslikka rozi bo‘lishdi. 9 Ruhoniy Yohayido bir quti olib, qopqog‘i ustidan
teshik ochdi. Uni qurbongohning yoniga — odamlar Egamizning uyiga kiradigan joyning
o‘ng tomoniga joylashtirdi. Ostonada qorovul bo‘lib turgan ruhoniylar Egamizning uyiga
keltirilgan hamma kumushni qutiga tashlayverishdi. 10 Qutida ko‘p pul yig‘ilgandan
keyin, shohning mirzasi bilan oliy ruhoniy kelib, Egamizning uyiga keltirilgan
kumushlarni qoplarga solib tortishardi. 11 Tortilgan kumushlar Egamizning uyidagi
ishlarning boshida turgan odamlarga berilardi. Ular esa bu kumushlarni Egamizning
uyida ishlayotgan duradgor va binokorlarga, 12 tosh teruvchilarga, sangtaroshlarga
to‘lashar, uyni tuzatmoq uchun yog‘och va tosh sotib olishga ishlatishar, uyni tuzatishga
kerak bo‘lgan boshqa ashyolarga sarf qilishardi.
13 Egamizning uyida yig‘ilgan kumush bu joy uchun kumush tog‘oralar, qaychilar,
tog‘orachalar va karnaylar, har xil oltin yoki kumush buyumlar yasashga sarf qilinmadi.
14 Bu kumushning hammasi ishlovchilarga to‘lashga va uyni tuzatishga sarf qilindi.
15 Egamizning uyida ishlovchilarga pul taqsimlaydigan odamlardan hisob–kitob talab
qilinmadi, chunki ular halol ishlashdi.
16 Ayb va gunoh qurbonliklariga qo‘shib, zararni qoplash uchun beriladigan pul esa
Egamizning uyiga olib kiritilmasdi. Bu pul ruhoniylarga tegishli edi.
17 O‘sha paytda Oram shohi Xazayil Gat shahriga* hujum qilib, shaharni qo‘lga kiritdi.
Keyin Quddusga hujum qilmoqqa qaror qildi. 18 Yahudo shohi Yo‘sh esa ota–bobolari —
Yahudo shohlari Yohushafatning, Yohuramning, Oxoziyoning va o‘zining Egamizga
atagan hamma muqaddas nazrlarini, Egamizning uyidan va saroy xazinalaridan olingan
jamiki oltinlarni Oram shohi Xazayilga yubordi. Shundan keyin Xazayil Quddusga hujum
qilish qaroridan qaytdi.
19 Yo‘shning boshqa ishlari, butun faoliyati “Yahudo shohlari tarixi” kitobida
yozilgan. 20 Shoh Yo‘shning a’yonlari isyon ko‘tarib, uni Silloga boradigan yo‘lda —
Millodagi* uyda o‘ldirdilar. 21 Uni o‘ldirganlar Yo‘shning a’yonlaridan Shimat degan
odamning o‘g‘li Yo‘zabad bilan Sho‘mer deganning o‘g‘li Yohuzabad edilar. Yo‘sh Dovud
qal’asida, ota–bobolari yoniga dafn qilindi. Uning o‘rniga o‘g‘li Emoziyo shoh bo‘ldi.

13–BOB

Isroil shohi Yohuxoz

1 Yahudo shohi Yo‘sh hukmronligining yigirma uchinchi yilida Yohuxoz Samariyada
Isroil taxtiga o‘tirdi va o‘n yetti yil hukmronlik qildi. Yohuxoz Yohuning o‘g‘li edi.
2 Yohuxoz Egamiz oldida qabih ishlar qildi va Isroilni gunohga botirgan Nabat o‘g‘li
Yeribomning qilgan gunohlariga ergashdi. U qabih yo‘lidan aslo qaytmadi.
3 Shuning uchun Egamiz Isroildan g‘azablandi va Isroil xalqini uzoq vaqt Oram shohi
Xazayil bilan Xazayilning o‘g‘li Banhadadning qo‘liga berib qo‘ydi. 4 Shu sababdan
Yohuxoz Egamizga iltijo qilgan edi, Egamiz uning iltijolarini eshitdi. Isroil xalqi chekkan
azob–uqubatlarni, Oram shohi ularni siquvga olganini Egamiz ko‘rib turardi. 5 Egamiz
Isroilga bir qutqaruvchi* yuborgandan keyin, ular Oram xalqining zulmidan xalos bo‘ldi
va oldingiday tinchgina yashayverdi. 6 Ammo xalq Yeribom xonadoni Isroilga olib kirgan

gunohlarga ergashaverdi, bu gunohlardan qaytmadi. Asheraga* atalgan ustun hali ham Samariyada turgan edi. 7 Oram shohi Yohuxozning lashkarini qirib, kulini ko‘kka sovurgan edi. Yohuxozning ellikta otliq sipohi, o‘nta jang aravasi, o‘n mingta piyoda sipohidan boshqa kuchi qolmagan edi. 8 Yohuxozning boshqa ishlari, butun faoliyati va uning qahramonliklari “Isroil shohlari tarixi” kitobida yozilgan. 9 Yohuxoz olamdan o‘tdi. U Samariyada ota–bobolari yoniga dafn qilindi. Uning o‘rniga o‘g‘li Yoho‘sh* shoh bo‘ldi.

Isroil shohi Yoho‘sh

10 Yahudo shohi Yo‘sh hukmronligining o‘ttiz yettinchi yilida Yoho‘sh Samariyada Isroil taxtiga o‘tirdi va o‘n olti yil hukmronlik qildi. Yoho‘sh Yohuxozning o‘g‘li edi. 11 U Egamiz oldida qabih ishlar qildi. Isroilni gunohga botirgan Nabat o‘g‘li Yeribom qilgan jamiki gunohlarga ergashdi, bu gunohlardan qaytmadi.

12 Yoho‘shning boshqa ishlari, butun faoliyati, Yahudo shohi Emoziyo bilan jang qilganda ko‘rsatgan qahramonliklari “Isroil shohlari tarixi” kitobida yozilgan. 13 Yoho‘sh olamdan o‘tib, Samariyada ota–bobolari — Isroil shohlari yoniga dafn qilindi. O‘rniga o‘g‘li Yorubom shoh bo‘ldi.

Elishayning o‘limi

14 Elishay tuzalmas xastalikka yo‘liqqanda, Isroil shohi Yoho‘sh uni ziyorat qilgani borib: “Otam! Otam! — deb yig‘lagan edi. — Siz Isroilning qudratli himoyachisisiz–ku! Isroilning jang aravasi va otliq lashkari kabisiz!* Bizni tashlab ketmang!”

15 O‘shanda Elishay shohga: “Yoying bilan o‘qlaringni ol!” dedi. Shoh yoyi bilan o‘qlarini oldi. 16 Elishay: “Yoyni hozirla!” deb shohga buyurdi. Shoh yoyni hozirlagach, Elishay qo‘llarini shohning qo‘llari ustiga qo‘ydi. 17 So‘ngra unga: “Sharq tomondagi derazani och!” deb buyurdi. Shoh derazani ochgandan keyin, Elishay: “O‘qni ot!” dedi. Shoh o‘qni otdi.

— Bu o‘q Egamiz beradigan najot alomatidir, u seni Oram lashkari ustidan zafarga erishtiradi, — dedi Elishay. — Sen Oram lashkarini Ofoqda yo‘q qilasan.

18 Keyin Elishay shohga: “Qolgan o‘qlarni ol!” deb buyurdi. Isroil shohi o‘qlarni olgach, Elishay unga: “O‘qlarni yerga ur!” dedi. Shoh o‘qlarni uch marta yerga urib, to‘xtab qoldi. 19 Shunda payg‘ambar shohdan achchiqlandi:

— Besh–olti marta urishing lozim edi, o‘shanda Oram lashkarini tamomila mag‘lub qilgan bo‘larding. Endi esa ularni uch martagina mag‘lub etasan, xolos.

20 Shundan keyin Elishay vafot etdi, uni dafn qildilar. Har yili bahorda Mo‘abdan bosqinchilar Isroil yerlariga bostirib kelardi. 21 Bir safar Isroil odamlari bir marhumni dafn qilayotgan edilar, Mo‘ablik bosqinchilarni ko‘rdilar–u, jasadni Elishayning xilxonasiga tashlab qochdilar. Jasad Elishayning suyaklariga tekkanda tirilib ketdi va oyoqqa turdi.

Isroil bilan Oram o‘rtasidagi urush

22 Oram shohi Xazayil Yohuxozning butun shohligi davrida Isroil xalqiga zulm o‘tkazib kelgan edi. 23 Ammo Egamiz Isroil xalqiga rahm–shafqat ko‘rsatib, Ibrohim, Is’hoq va Yoqub bilan qilgan ahdiga ko‘ra, Isroil xalqiga yuz burgan edi. Egamiz hozirgacha* Isroil xalqini O‘z huzuridan quvib chiqarmadi va ularning qirilib ketishiga yo‘l qo‘ymadi.

24 Oram shohi Xazayil vafot etgach, o‘rniga o‘g‘li Banhadad shoh bo‘ldi. 25 So‘ngra Yoho‘sh otasi Yohuxoz shohligi davrida boy bergan shaharlarni Xazayilning o‘g‘li

Banhadaddan qaytarib oldi. Banhadadni uch marta mag‘lub qilib, Isroil shaharlariga boshqatdan egalik qildi.

14–BOB

Yahudo shohi Emoziyo

1 Isroil shohi Yoho‘sh* hukmronligining ikkinchi yilida Emoziyo Yahudo shohi bo‘ldi.
Emoziyo Yo‘shning o‘g‘li edi. 2 Emoziyo shoh bo‘lganda, yigirma besh yoshda edi. U
Quddusda yigirma to‘qqiz yil hukmronlik qildi. Onasi Qudduslik bo‘lib, ismi Yohuvaddon
edi.
3 Emoziyo Egamiz oldida to‘g‘ri ishlar qilsa ham, bobosi Dovud kabi emasdi. U har
qanday ishni otasi Yo‘sh kabi qildi. 4 Shu boisdan sajdagohlar* hamon yo‘q qilinmagan,
xalq u yerlarda hali ham qurbonliklar keltirib, tutatqi tutatardi.
5 Emoziyo o‘z shohligini mustahkamlab olgandan keyin, otasini o‘ldirgan a’yonlarni
yo‘q qildi. 6 Biroq Musoning Tavrot kitobida yozilganiga ko‘ra, qotillarning bolalarini
o‘ldirmadi, chunki Egamiz: “Otalar farzandlarining gunohi uchun o‘ldirilmasin,
farzandlar otalarining gunohi uchun o‘ldirilmasin, har kim o‘zining gunohi uchungina
jazolansin”, deb amr qilgan edi*.
7 Emoziyo Tuz vodiysida* o‘n mingta Edom sipohini o‘ldirdi. Sela shahrini jang qilib
qo‘lga qiritdi va u yerga Yoxtal deb nom berdi. O‘sha joy hozir ham shu nom bilan
yuritiladi.
8 Shundan so‘ng Emoziyo Isroil shohi Yoho‘shga xabarchilar jo‘natib: “Qani, menga
jang maydonida ro‘baro‘ kelib ko‘r–chi”, dedi.
9 Isroil shohi Yoho‘sh esa bunga javoban Yahudo shohi Emoziyoga shu xabarni
jo‘natdi: “Lubnon tog‘larida bir g‘ovtikan sadr daraxtiga, qizingni o‘g‘limga xotinlikka
ber, deb xabar yo‘llabdi. O‘sha paytda bir yirtqich hayvon o‘sha yerdan o‘tib ketayotib,
g‘ovtikanni bosib yanchib ketibdi. 10 Shunga o‘xshab, sen ham Edom xalqini mag‘lub
etganing uchun mag‘rurlanib ketding, Emoziyo. O‘sha shuhrating bilan kifoyalanib,
uyingda o‘tiraver. Nima uchun qitmirlik qilyapsan? O‘z boshingni ham, Yahudo xalqining
boshini ham baloga giriftor qilyapsan!”
11 Lekin Emoziyo quloq solmadi. Shuning uchun Isroil shohi Yoho‘sh Yahudo shohi
Emoziyo ustiga yurish qildi. Ikkala tomonning lashkari Yahudoning Bayt–Shamash
shahrida* ro‘baro‘ keldi. 12 Isroil lashkari Yahudo lashkarini mag‘lub etdi. Yahudo
lashkarining hammasi uylariga qochib ketdi. 13 Isroil shohi Yoho‘sh Yahudo shohi
Emoziyoni Bayt–Shamashda asir qilib oldi. Emoziyo Oxoziyoning nevarasi, Yo‘shning
o‘g‘li edi. So‘ng Yoho‘sh Quddusga kelib, Quddus devorining Efrayim darvozasidan
Burchak darvozasigacha bo‘lgan 400 tirsak* qismini buzdirdi. 14 Egamizning uyida va
saroyning xazinalarida topilgan oltinu kumushni va ashyolarni tortib oldi. Bulardan
tashqari, asirlarni ham olib, Samariyaga qaytib ketdi.
15 Yoho‘shning boshqa ishlari, Yahudo shohi Emoziyo bilan jang qilganda ko‘rsatgan
qahramonliklari haqida “Isroil shohlari tarixi” kitobida yozilgan. 16 Yoho‘sh olamdan
o‘tdi. U Samariyada ota–bobolari — Isroil shohlari yoniga dafn qilindi. Uning o‘rniga
o‘g‘li Yorubom shoh bo‘ldi.

Yahudo shohi Emoziyoning o‘limi

17 Yahudo shohi Emoziyo Isroil shohi Yoho‘shning o‘limidan keyin o‘n besh yil

yashadi. 18 Emoziyoning boshqa ishlari haqida “Yahudo shohlari tarixi” kitobida
yozilgan. 19 Quddusda Emoziyoga qarshi fitna uyushtirildi. Emoziyo bundan xabar topib,
Laxish shahriga* qochdi. Ammo dushmanlari Emoziyoning ortidan odam yuborib, uni
o‘sha yerda o‘ldirtirdilar. 20 Emoziyoning jasadini otda Quddusga olib keldilar. U Dovud
qal’asida, ota–bobolarining yoniga dafn qilindi. 21 So‘ngra Yahudo xalqi o‘n olti yoshli
Uzziyoni* otasi Emoziyoning o‘rniga shoh qilib ko‘tardilar. 22 Otasi Emoziyo olamdan
o‘tgach, Uzziyo Elet shahrini* qaytadan Yahudo yerlariga qo‘shib olib, boshqatdan qurdi.

Isroil shohi Yorubom

23 Yahudo shohi Emoziyo hukmronligining o‘n beshinchi yilida Yorubom Samariyada
Isroil shohi bo‘ldi va qirq bir yil hukmronlik qildi. Yorubom Yoho‘shning o‘g‘li edi. 24 U
Egamiz oldida qabih ishlar qildi va Isroilni gunohga botirgan Nabat o‘g‘li Yeribom qilgan
gunohlarga ergashdi.
25 Yorubom Levo–Xomatdan* O‘lik dengizgacha* bo‘lgan Isroil yerlarini qaytadan
qo‘lga kiritdi. Zotan, Isroil xalqining Xudosi — Egamiz O‘z quli Yunus payg‘ambar orqali
bu to‘g‘rida aytgan edi. Yunus Amitay deganning o‘g‘li bo‘lib, u Gat–Xafer shahridan edi.
26 Egamiz Isroil xalqi tortayotgan nihoyatda og‘ir azoblarni ko‘rdi. Bu yerda Isroilga
yordam berishga qodir na qul, na ozod qolgan edi. 27 Egamiz Isroil xalqi nomini yer
yuzidan o‘chirishni istamagani uchun Yorubom orqali ularni qutqargan edi.
28 Yorubomning boshqa ishlari, butun faoliyati, janglarda ko‘rsatgan
qahramonliklari, ilgaridan Yahudoga qarashli bo‘lgan Damashq va Xomatni* qaytadan
Isroil yerlariga qo‘shib olgani to‘g‘risida “Isroil shohlari tarixi” kitobida yozilgan.
29 Yorubom olamdan o‘tib, ota–bobolari — Isroil shohlari yoniga dafn qilindi. O‘rniga
o‘g‘li Zakariyo shoh bo‘ldi.

15–BOB

Yahudo shohi Uzziyo

1 Yorubom Isroilda hukmronlik qilayotganiga yigirma yetti yil bo‘lganda, Uzziyo*
Yahudo shohi bo‘ldi. Uzziyo Emoziyoning o‘g‘li edi. 2 Uzziyo shoh bo‘lganda, o‘n olti
yoshda edi. U Quddusda ellik ikki yil hukmronlik qildi. Onasi Qudduslik bo‘lib, ismi
Yoxoliyo edi.
3 Uzziyo ham, otasi Emoziyo kabi, Egamiz oldida to‘g‘ri ishlar qildi. 4 Lekin
sajdagohlar* hamon yo‘q qilinmagan, xalq o‘sha joylarda hali ham qurbonliklar keltirib,
tutatqi tutatardi.
5 Egamiz Uzziyoni jazolab, tuzalmas teri kasalligiga* yo‘liqtirdi. Uzziyo umrining
oxirigacha bir uyda yolg‘iz yashadi. Yurtdagi xalqni ham, shoh saroyini ham o‘g‘li Yo‘tom
boshqarardi.
6 Uzziyoning boshqa ishlari, butun faoliyati “Yahudo shohlari tarixi” kitobida
yozilgan. 7 Uzziyo olamdan o‘tib, Dovud qal’asida, ota–bobolari yoniga dafn qilindi.
Uning o‘rniga o‘g‘li Yo‘tom shoh bo‘ldi.

Isroil shohi Zakariyo

8 Uzziyo Yahudoda shohlik qilayotganiga o‘ttiz sakkiz yil bo‘lganda, Zakariyo
Samariyada Isroil shohi bo‘ldi va olti oy hukmronlik qildi. Zakariyo Yorubomning o‘g‘li
edi. 9 U ham, otalari kabi, Egamiz oldida qabih ishlar qilib, Isroilni gunohga botirgan

Nabat o‘g‘li Yeribom qilgan gunohlarga ergashdi.
10 Shallum degan odam Zakariyoga qarshi fitna uyushtirdi. Shallum Yobosh
deganning o‘g‘li edi. Hammaning oldida Zakariyoni o‘ldirib, o‘rniga o‘zi shoh bo‘ldi.
11 Zakariyoning boshqa ishlari “Isroil shohlari tarixi” kitobida yozilgan. 12 Shunday qilib,
Egamizning Yohuga: “Sening nasling to‘rtinchi avlodigacha Isroil taxtida o‘tiradi”, deb
aytgan va’dasi amalga oshdi*.

Isroil shohi Shallum

13 Uzziyo Yahudoda shohlik qilayotganiga o‘ttiz to‘qqiz yil bo‘lganda, Shallum Isroil
shohi bo‘ldi va Samariyada bir oy hukmronlik qildi. 14 Manaxim degan odam Tirzadan*
Samariyaga kelib, Shallumga suiqasd uyushtirdi. Manaxim Gadi deganning o‘g‘li edi.
Manaxim Shallumni o‘ldirib, o‘rniga o‘zi shoh bo‘ldi. 15 Shallumning boshqa ishlari va u
qilgan fitna haqida “Isroil shohlari tarixi” kitobida yozilgan. 16 O‘shanda Tifsax aholisi
taslim bo‘lmagani uchun Manaxim Tirzadan jo‘nab ketdi–da, borib Tifsax shahri va
uning atrofidagi qishloqlarni qirdi. Hatto homilador ayollarning qorinlarini yorib
tashladi.

Isroil shohi Manaxim

17 Uzziyo Yahudoda shohlik qilayotganiga o‘ttiz to‘qqiz yil bo‘lganda, Gadi o‘g‘li
Manaxim Isroil shohi bo‘lgan edi. Manaxim Samariyada o‘n yil hukmronlik qildi. 18 U
Egamiz oldida qabih ishlar qilib, Isroilni gunohga botirgan Nabat o‘g‘li Yeribom qilgan
gunohlarga umri bo‘yi ergashdi.
19 Shundan keyin Ossuriya shohi Tig‘latpilasar* Isroil yerlariga hujum qildi.
“Tig‘latpilasar meni qo‘llab–quvvatlasin, o‘zim shoh bo‘lib qolay” degan maqsadda
Manaxim unga 2000 pud* kumush berdi. 20 Manaxim Isroildagi hamma boylarni odam
boshiga ellik kumush tangadan* to‘lashga majbur qilib, Ossuriya shohiga berilgan
kumushning o‘rnini qopladi. Shundan so‘ng Ossuriya shohi Isroil yerlaridan chiqib,
yurtiga qaytib ketdi.
21 Manaximning boshqa ishlari, uning butun faoliyati “Isroil shohlari tarixi” kitobida
yozilgan. 22 Manaxim olamdan o‘tgach, o‘rniga o‘g‘li Pakaxiyo shoh bo‘ldi.

Isroil shohi Pakaxiyo

23 Uzziyo Yahudoda shohlik qilayotganiga ellik yil bo‘lganda, Pakaxiyo Samariyada
Isroil shohi bo‘ldi va ikki yil hukmronlik qildi. Pakaxiyo Manaximning o‘g‘li edi.
24 Pakaxiyo Egamiz oldida qabih ishlar qilib, Isroilni gunohga botirgan Nabat o‘g‘li
Yeribom qilgan gunohlarga ergashdi.
25 Pekax degan lashkarboshi Pakaxiyoga qarshi fitna uyushtirdi. Pekax Ramaliyo
degan odamning o‘g‘li edi. Pekax yoniga Giladlik ellikta odamni olib, Samariyadagi shoh
saroyining qal’asida Pakaxiyoni, Argob va Oreyni o‘ldirdi. Uning o‘rniga Pekaxning o‘zi
shoh bo‘ldi.
26 Pakaxiyoning boshqa ishlari, butun faoliyati “Isroil shohlari tarixi” kitobida
yozilgan.

Isroil shohi Pekax

27 Uzziyo Yahudoda shohlik qilayotganiga ellik ikki yil bo‘lganda, Pekax Samariyada
Isroil shohi bo‘ldi va yigirma yil hukmronlik qildi. 28 U Egamiz oldida qabih ishlar qilib,
Isroilni gunohga botirgan Nabat o‘g‘li Yeribom qilgan gunohlarga ergashdi.

29 Isroil shohi Pekax davrida Ossuriya shohi Tig‘latpilasar* bostirib kelib, Isroilning
Iyxon, Ovil–Bayt–Maxo, Yonox, Kedesh, Xazor shaharlari bilan birga Gilad, Jalila va
butun Naftali hududlarini qo‘lga kiritdi hamda bu yerlardagi xalqni Ossuriyaga asir qilib
olib ketdi.
30 Yahudo shohi Yo‘tom hukmronligining yigirmanchi yilida Xo‘sheya Pekaxga fitna
uyushtirib, uni o‘ldirdi va o‘rniga o‘zi shoh bo‘ldi. Xo‘sheya Elox deganning o‘g‘li edi.
31 Pekaxning boshqa ishlari, butun faoliyati “Isroil shohlari tarixi” kitobida yozilgan.

Yahudo shohi Yo‘tom

32 Isroil shohi Pekax hukmronlik qilayotganiga ikki yil bo‘lganda, Yo‘tom Yahudo
shohi bo‘ldi. Yo‘tom Uzziyoning o‘g‘li edi. 33 Yo‘tom yigirma besh yoshida shoh bo‘lib,
Quddusda o‘n olti yil hukmronlik qildi. Onasining ismi Yerusha bo‘lib, u Zodo‘xning qizi
edi.
34 Yo‘tom, otasi Uzziyo kabi, Egamiz oldida to‘g‘ri ishlar qildi. 35 Ammo sajdagohlar
hamon yo‘q qilinmagan, xalq o‘sha sajdagohlarda qurbonliklar keltirib, tutatqi tutatardi.
Yo‘tom Egamiz uyining Yuqori Darvozasini qurdi.
36 Yo‘tomning boshqa ishlari, butun faoliyati haqida “Yahudo shohlari tarixi” kitobida
yozilgan. 37 O‘sha kunlarda Oram shohi Ratan bilan Isroil shohi Pekaxning Yahudoga
hujum qilishlariga Egamiz yo‘l qo‘yib berdi. 38 Yo‘tom olamdan o‘tib, bobosi Dovud
qal’asida, ota–bobolari yoniga dafn qilindi. Uning o‘rniga o‘g‘li Oxoz shoh bo‘ldi.

16–BOB

Yahudo shohi Oxoz

1 Isroil shohi Pekax hukmronlik qilayotganiga o‘n yetti yil bo‘lganda, Oxoz Yahudo
shohi bo‘ldi. Oxoz Yo‘tomning o‘g‘li edi. 2 Oxoz yigirma yoshida shoh bo‘lib, Quddusda
o‘n olti yil hukmronlik qildi. U bobosi Dovuddan namuna olmadi, Egasi Xudo oldida
to‘g‘ri ishlar qilmay, 3 Isroil shohlarining yo‘lidan ketdi. Kan’on yurtidan Egamiz quvgan
qavmlarning jirkanch odatlariga taqlid qilib, hatto o‘z o‘g‘lini qurbonlik qilib, olovda
kuydirdi*. 4 Sajdagohlarda*, tepaliklarda va har qanday yashil daraxt ostida qurbonliklar
keltirib, tutatqi tutatardi.
5 Oram shohi Ratan bilan Isroil shohi Pekax Quddusni bosib olish uchun yurish
qildilar. Shaharni qamal qilib tursalar–da, Oxozni yenga olmadilar. 6 Shunda Oram shohi
Ratan Elet shahrini qo‘lga kiritib, u yerdagi Yahudo xalqini haydab chiqardi. Eletga
joylashgan Oram xalqi* hozir ham o‘sha yerda istiqomat qiladi.
7 Oxoz Ossuriya shohi Tig‘latpilasarga: “Men sizga qaramman*, qulingizman, keling,
menga hujum qilayotgan Oram va Isroil shohlarining qo‘lidan meni qutqaring”, deb
elchilar jo‘natdi. 8 Egamizning uyidagi va shoh saroyining xazinalaridagi oltinu
kumushlarni Ossuriya shohiga hadya qilib yubordi.
9 Ossuriya shohi Oxozning iltimosiga rozi bo‘ldi. Damashqqa hujum qilib, bu shaharni
bosib oldi. Shahar aholisini Xirga surib chiqardi va shoh Ratanni o‘ldirdi.
10 Shoh Oxoz Ossuriya shohi Tig‘latpilasar bilan uchrashish uchun Damashqqa
borganda, u yerdagi qurbongohni ko‘rdi. Qurbongohning rejasini hamma ikir–
chikirlarigacha chizib, tayyorlab, ruhoniy Uriyoga yubordi. 11 Shoh Oxoz Damashqdan
qaytgunga qadar, ruhoniy Uriyo, u yuborganlari bo‘yicha, aynan o‘shanday qurbongoh
qurdi.

12 Shoh Damashqdan qaytgach, yangi qurbongohni ko‘rib, uning ustida qurbonliklar
keltirish uchun bordi. 13 Kuydiriladigan qurbonligini va don nazrini ado etdi, yangi
qurbongoh ustiga sharob nazrini quydi, tinchlik qurbonligining qonini qurbongohga
sepdi. 14 Egamizga bag‘ishlangan oldingi bronza qurbongoh yangi qurbongoh bilan
Egamizning uyi orasida edi. Oxoz bronza qurbongohni bir chetga — o‘zi qurgan yangi
qurbongohning shimol tomoniga ko‘chirtirib tashladi. 15 So‘ngra shoh Oxoz ruhoniy
Uriyoga shunday farmon berdi: “Ertalabki kuydiriladigan qurbonlik bilan kechqurungi
don nazrini, shohning kuydiriladigan qurbonligini va uning don nazrini, bundan
tashqari, yurt xalqining kuydiriladigan qurbonligini, don nazrini va sharob nazrini mana
shu katta qurbongoh ustida ado et. Kuydiriladigan qurbonlik bilan boshqa
qurbonliklarning qonini shu qurbongohga sep. Kelajakda nima bo‘lishi menga ayon
bo‘lishi uchun esa bronza qurbongohni saqla.” 16 Ruhoniy Uriyo shoh Oxozning hamma
farmonini bajardi.
17-18 Shoh Oxoz Ossuriya shohini mamnun qilish uchun quyidagi ishlarni qildi:
Xudoning uyidagi aravalarning yon to‘siqlarini ko‘chirtirib tashladi, bularning ustidagi
tog‘oralarni ham oldirdi. Bronzadan yasalgan buqalarning ustidan hovuzni* olib,
toshdan qilingan to‘shama ustiga joylashtirdi. Egamizning uyi ichkarisida qurilgan va
Shabbat kuni shoh foydalanadigan joyni, shoh tashqaridan kiradigan yo‘lakni oldirib
tashladi.
19 Oxozning boshqa ishlari “Yahudo shohlari tarixi” kitobida yozilgan. 20 Oxoz
olamdan o‘tib, Dovud qal’asida, ota–bobolari yoniga dafn etildi. O‘rniga o‘g‘li Hizqiyo
shoh bo‘ldi.

17–BOB

Isroilning oxirgi shohi Xo‘sheya

1 Yahudo shohi Oxoz hukmronlik qilayotganiga o‘n ikki yil bo‘lganda, Xo‘sheya
Samariyada Isroil shohi bo‘ldi va to‘qqiz yil hukmronlik qildi. Xo‘sheya Eloxning o‘g‘li
edi. 2 U Egamiz oldida qabih ishlar qilgan bo‘lsa ham, o‘zidan oldin o‘tgan Isroil shohlari
qadar emasdi.
3 Ossuriya shohi Shalmanasar* Xo‘sheyaga qarshi urush ochdi. Xo‘sheya taslim bo‘lib,
Shalmanasarga o‘lpon to‘lay boshladi. 4 Lekin keyinroq Xo‘sheya Misr fir’avni So‘vaxdan
yordam so‘rab xabarchilar jo‘natdi va Ossuriya shohiga har yili to‘lashi kerak bo‘lgan
o‘lponni to‘lamay qo‘ydi. Xo‘sheyaning xoinlik qilganini Ossuriya shohi bilib qoldi,
shuning uchun uni tutib, zindonga tashladi.

Samariyaning mag‘lubiyati

5 Shalmanasar Isroil yerlariga hujum qilib, Samariyani uch yil qamal qilib turdi.
6 Xo‘sheya hukmronligining to‘qqizinchi yilida Ossuriya shohi* Samariyani qo‘lga
kiritib*, Isroil xalqini Ossuriyaga ko‘chirdi. Ularni Xalax shahriga, Xavor daryosi
bo‘yidagi Gozan hududiga va Midiya shaharlariga joylashtirdi.
7 Isroil xalqi o‘zlarini Misr fir’avni hukmronligidan xalos qilib, Misrdan olib chiqqan
Egasi Xudoga qarshi gunoh qilgan edilar. Ularning boshiga kelgan jamiki g‘am–
kulfatlarning sababi shu edi. O‘sha paytlarda Isroil xalqi begona xudolarga sajda
qilishar, 8 Kan’on yurtidan Egamiz quvgan qavmlarning odatlariga va Isroil shohlari*
o‘zlaricha joriy qilgan odatlarga binoan yashardilar. 9 O‘zlarining Egasi Xudoga ma’qul

kelmaydigan ishlarni qilardilar. Hamma yerda — qishloqlardan tortib, mustahkam
shahargacha bo‘lgan joylarda sajdagohlar* qurgan edilar. 10 Har bir tepalikning ustiga,
har bir yashil daraxtning ostiga butsimon toshlarni, Asheraga* atab ustunlarni o‘rnatgan
edilar. 11 Kan’on yurtidan Egamiz quvib yuborgan xalqlar singari, Isroil xalqi hamma
sajdagohlarda qurbonliklar qilishardi. Ular qabih ishlari bilan Egamizni
g‘azablantirardilar. 12 Egamiz: “Bunday ishlarni qilmanglar”, deb aytganiga*
qaramasdan, butlarga xizmat qilaverardilar.
13 Egamiz Isroil va Yahudo xalqini hamma payg‘ambarlar, valiylar orqali
ogohlantirib, ularga shunday amr bergan edi: “Qabih yo‘llaringizdan qaytinglar. Mening
amrlarimga, farmonlarimga itoat etinglar! Men hamma qonunlarimni ota–
bobolaringizga berganman, payg‘ambar bo‘lgan qullarim orqali sizlarga yuborganman.”
14 Ammo Isroil xalqi quloq solmasdi. Ular otalari kabi o‘jarlik qilaverdilar, o‘zlarining
Egasi Xudoga ishonmas edilar. 15 Egamizning farmonlaridan, ogohlantirishlaridan va
otalari bilan qilgan ahdidan yuz o‘girib, betayin xudolarga sajda qilgani uchun o‘zlari
ham betayin bo‘lib qolgandilar. Egamiz: “Atrofingizdagi xalqlarga o‘xshab
yashamanglar”, deb ularga amr bersa ham, o‘sha xalqlarning odatlariga ko‘ra,
yashayverardilar.
16 Isroil xalqi o‘zlarining Egasi Xudoning hamma amrlaridan yuz o‘girgandi. Ular
topingani ikkita buzoq tasvirini va Asheraning ustunini yasadilar. Barcha samoviy
jismlarga sajda qilib, Baalga xizmat etardilar. 17 O‘g‘illarini, qizlarini qurbonlik qilib,
olovda kuydirardilar*, fol ochtirib, ta’birchilarga e’tiqod qilardilar. Egamiz oldida qabih
ishlarga mukkasidan ketib, Egamizni g‘azablantiraverdilar. 18 Egamiz Isroil xalqidan
qattiq g‘azablanib, ularni O‘zining huzuridan chiqarib tashlagandi. Yahudo xalqidan
tashqari bironta qabila Egamizning huzurida qolmagan edi. 19 Hatto Yahudo xalqi ham
o‘zlarining Egasi Xudoning amrlariga rioya qilmay qo‘ygandi. Ular Isroil xalqining qabih
odatlariga taqlid qildilar. 20 Oqibatda Egamiz Isroilning hamma qavmidan yuz o‘girdi.
Ularni talonchilarning qo‘liga berib, jazoladi. Oxiri, hammasini huzuridan uloqtirib
tashladi.
21 Darvoqe, Egamiz Dovud xonadonidan Isroilni tortib olgandan keyin*, Isroil xalqi
Nabat o‘g‘li Yeribomni shoh qilgan edi. Yeribom Isroil xalqini Egamizning yo‘lidan
ozdirib, og‘ir gunohga botirdi. 22 Isroil xalqi Yeribom qilgan hamma gunohlarga
ergashdi, bu gunohlardan qaytmadi. 23 Natijada Egamiz payg‘ambar qullari orqali
aytganiday, Isroil xalqini O‘z huzuridan quvgan va Isroil xalqi o‘z yurtlaridan Ossuriyaga
surgun qilingan edilar. Ular bugungacha* o‘sha yerda yashaydilar.

Samariyaga o‘rnashgan xalqlarning butparastligi

24 Ossuriya shohi Bobildan, Go‘sax, Ivvax, Xomat va Sefarvayim shaharlaridan
odamlarni olib kelib, Samariya* shaharlarida Isroil xalqi o‘rniga joylashtirdi. Ular
Samariyani egallab, Samariya shaharlarida istiqomat qila boshladilar.
25 Ular bu joylarga dastlab o‘rnashganlarida, Egamizga sajda qilmadilar. Shuning
uchun Egamiz Samariya shaharlariga arslonlar yubordi. Arslonlar o‘sha xalqlardan ba’zi
odamlarni o‘ldirdi. 26 So‘ngra Samariyadan Ossuriya shohiga quyidagicha xabar
jo‘natildi: “Siz Samariya shaharlariga ko‘chirib kelib o‘rnashtirgan xalqlar bu yurt
xudosining qonun–qoidalarini bilmayaptilar. Shuning uchun o‘sha xudo bu yerga
arslonlar yuboryapti, odamlar esa arslonlarga yem bo‘lyapti.”

27 Shundan keyin Ossuriya shohi quyidagicha farmon berdi: “Samariyadan asir qilib
olib ketilgan ruhoniylardan birortasini o‘sha yerga qaytarib yuboringlar. Ruhoniy o‘sha
yurtga borib yashasin va Samariyaning xudosi qonun–qoidalarini o‘sha yerdagi
xalqlarga o‘rgatsin.” 28 Samariyadan ko‘chirib yuborilgan ruhoniylardan biri qaytib
kelib, Baytilda istiqomat qila boshladi. U o‘sha yerda o‘rnashgan xalqlarga Egamizga
qanday sajda qilishni o‘rgatishga kirishdi.
29 Lekin Samariya shaharlariga joylashgan har bir xalq o‘z xudolarining tasvirini
yasayverdi. Isroil xalqi Samariyada yashaganda barpo qilgan sajdagohlarga o‘sha
xudolarning tasvirini qo‘ydilar. 30 Bobilliklar xudo Suxotvanotning, Xutliklar xudo
Nargalning, Xomatliklar xudo Oshimaning, 31 Ivvaxliklar esa xudolar Nivxaz va
Tartoqning tasvirlarini yasab, o‘sha xudolarga sajda qildilar. Sefarvayimliklar o‘zlarining
xudolari Odrammalek va Anammalekka bolalarini kuydirib qurbonlik qildilar. 32 Ular
ham Egamizga sajda qildilar, ayni paytda o‘z xudolarining sajdagohlarida xizmat qilish
uchun oralaridan ruhoniylar ham saylab oldilar. 33 Ular Egamizga sajda qilish bilan
birga, o‘zlari oldin yashagan ona yurtining odatlariga muvofiq o‘z xudolariga ham
xizmat qilaverdilar. 34 O‘sha xalqlar bugungacha eski odatlari bo‘yicha yashab keladilar:
na Egamizdan qo‘rqadilar, na Egamiz Yoqubga, ya’ni Isroil nasliga bergan farmonlarni,
qoidalarni, qonun va amrlarni bajaradilar.
35 Ilgarilari Egamiz Isroil xalqi bilan ahd tuzib, shunday amr etgan edi: “Begona
xudolarga sajda qilmanglar, ta’zim qilmanglar, u xudolarga xizmat qilmanglar, qurbonlik
keltirmanglar. 36 Faqat Menga sajda qilinglar! Men, Egangiz, buyuk qudratim va
ajoyibotlarim bilan sizlarni Misrdan olib chiqqanman. Menga ta’zim qilib, qurbonlik
keltiringlar. 37 Sizlar uchun yozgan farmonlarimni, qoidalarimni, qonunlarimni va
amrlarimni to abad ijro etinglar, begona xudolarga sajda qilmanglar. 38 Sizlar bilan
tuzgan ahdimni unutmanglar, begona xudolarga sajda qilmanglar. 39 Faqat Men, Egangiz
Xudogagina sajda qilinglar. Hamma g‘animlaringiz qo‘lidan sizlarni xalos qiladigan
Menman.”
40 Shunga qaramay, Samariyaga o‘rnashgan xalqlar Egamizning amrlariga quloq
solmasdan eski odatlariga ko‘ra, yashayverdilar. 41 Bu xalqlar bir paytning o‘zida ham
Egamizga sajda qilar, ham o‘yib ishlangan tasvirlarga xizmat qilardilar. Ularning bolalari
va nabiralari ham bugungacha otalari kabi yashaydilar.

18–BOB

Yahudo shohi Hizqiyo

1 Isroil shohi Xo‘sheya hukmronlik qilayotganiga uch yil bo‘lganda, Hizqiyo Yahudo
hukmdori bo‘ldi. Hizqiyo Oxozning o‘g‘li edi. 2 Hizqiyo yigirma besh yoshida shoh bo‘ldi.
U Quddusda yigirma to‘qqiz yil shohlik qildi. Onasining ismi Abiyo* bo‘lib, Zakariyoning
qizi edi.
3 Hizqiyo, bobosi Dovud kabi, Egamiz oldida to‘g‘ri ishlar qildi. 4 U sajdagohlarni*
yo‘qotdi, butsimon toshlarni parchalab tashladi, Asheraning* ustunlarini kesdi. Muso
bronzadan yasagan Naxushton nomli ilon tasvirini* ham sindirdi. Chunki Isroil xalqi
o‘sha kungacha bronza ilon tasviriga qurbonlik keltirardi.
5 Hizqiyo Isroil xalqining Xudosiga — Egamizga ishonardi. Hizqiyogacha ham, undan
keyin ham Yahudo shohlari orasida unga o‘xshagani bo‘lmadi. 6 Hizqiyo Egamizga

nihoyatda sodiq bo‘lib, Uning yo‘llaridan ozmadi. Egamiz Musoga bergan amrlarni bajardi. 7 Egamiz Hizqiyo bilan edi. Hizqiyo nima ish qilmasin, Egamiz unga baraka berdi. U Ossuriya shohiga itoat qilmay, unga qarshi bosh ko‘tardi. 8 Hamma joyda — G‘azo va uning atroflarigacha, qishloqlardan tortib, mustahkam shahargacha bo‘lgan joylarda Filistlarni mag‘lub qildi.

9 Hizqiyo hukmronligining to‘rtinchi yilida Ossuriya shohi Shalmanasar Samariyaga hujum qilib, qamal qildi. Bu paytda Isroil shohi Xo‘sheya yettinchi yil shohlik qilayotgan edi. 10 Qamalning uchinchi yilida* Samariya quladi. Hizqiyo hukmronligining oltinchi yilida va Isroil shohi Xo‘sheya hukmronligining to‘qqizinchi yilida Shalmanasar Samariyani oldi. 11 Ossuriya shohi* Isroil xalqini Ossuriyaga ko‘chirib, ularni Xalax shahriga, Xavor daryosi bo‘yidagi Gozan hududiga va Midiya shaharlariga joylashtirdi. 12 Ular o‘zlarining Egasi Xudoga itoat etmay, Uning ahdini buzganlari uchun shu hodisalar yuz bergandi. Xudoning O‘z quli Muso orqali bergan birorta amriga ular quloq solmadilar, hech birini bajarmadilar.

Ossuriya qo‘shini Quddusni o‘rab oladi

13 Hizqiyo hukmronligining o‘n to‘rtinchi yilida* Ossuriya shohi Sanxariv* Yahudo yurtiga hujum qildi. Uning hamma mustahkam shaharlarini bosib oldi. 14 Yahudo shohi Hizqiyo Laxish shahrida* turgan Ossuriya shohiga shunday xabar yubordi: “Men aybdorman, mening yurtimdan keting, nimani talab qilsangiz, rozi bo‘laman.” Ossuriya shohi Yahudo shohi Hizqiyoni 640 pud* kumush va 64 pud* oltinni o‘lpon qilib to‘lashga majbur qildi. 15 Hizqiyo hamma kumushni Egamizning uyidan va shoh saroyining xazinalaridan topib, unga berdi. 16 Hizqiyo yana Egamizning uyi eshiklari bilan eshik kesakilari* ustiga ilgari o‘zi qoplatgan oltin qoplamalarni ham chiqarib olib, Ossuriya shohiga berdi.

17 Keyin Ossuriya shohi o‘zining bosh qo‘mondoni, bosh vaziri va mulozimi boshchiligida katta lashkarni Laxishdan Quddusga, shoh Hizqiyoning ustiga safarbar qildi. Lashkar Quddusga borayotib, Yuqori hovuz arig‘i yonida to‘xtadi. Bu ariq kir yuvuvchining dalasiga boradigan yo‘l yonida edi. 18 Ular shoh Hizqiyoga xabarchi yuborgan edilar, Xilqiyo o‘g‘li Eliyaqim, Shavna va Osif o‘g‘li Yo‘x Quddusdan chiqib, Ossuriyaliklarning yoniga bordilar. Shoh Hizqiyoning saroyida Eliyaqim bosh vazir bo‘lib, Shavna kotib, Yo‘x esa mushovir* bo‘lib xizmat qilar edilar.

19 Mulozim ularga shunday dedi:

> “Ulug‘ Ossuriya shohining shu gaplarini Hizqiyoga yetkazing: «Nimangga ishonyapsan o‘zi? 20 Harbiy mahoratingdan va kuch–qudratingdan gapiryapsan, lekin bular quruq gaplar–ku. Kimingga ishonib menga itoat etmayapsan? 21 Ha, sen Misrga ishonyapsan. Lekin Misr yoriq qamishdan qilingan hassaga o‘xshaydi–ku. Unga suyansang, qo‘lingga sanchiladi. Misr fir’avniga ishonganlarning hammasi shu ahvolga tushadi. 22 Balki sizlar: ‘Biz Egamiz Xudoga ishonamiz’, deb aytarsizlar menga. Axir, Hizqiyo o‘sha Egangizning sajdagohu* qurbongohlarini buzib tashlab, Yahudo xalqiga va Quddusliklarga: ‘Faqatgina Quddusdagi qurbongohning oldida sajda qilinglar’, deb aytgan ekan–ku!*»
>
> 23 Kelinglar, endi janobi oliylari Ossuriya shohi nomidan sizlar bilan bir garov o‘ynaylik. Biz sizlarga ikki mingta ot beramiz, qani, ularni minishga odam

topinglar–chi! 24 Qani, koʻraylik–chi, shohimning qullari orasidagi eng kichik bir
lashkarboshisini magʻlub qila olasizmi?! Axir, oʻzingiz Misrning jang aravalariyu
otliqlariga umid bogʻlab oʻtiribsiz. 25 Qolaversa, bizni Egangizning xohishisiz bu
yurtni vayron qilishga kelgan, deb oʻylaysizlarmi? Egangizning Oʻzi bizga: «Oʻsha
joyga borib, u yerni vayron qilinglar», deb amr bergan–ku!"

26 Xilqiyo oʻgʻli Eliyaqim, Shavna va Yoʻx Ossuriyalik mulozimga:
— Bu qullaringga oramiycha* gapiraver, oramiychani tushunamiz. Ibroniycha gapirma. Tagʻin devor ustidagilar bizning gapimizni eshitib qolmasin, — dedilar.
27 Mulozim esa shunday javob berdi:
— Shohim bu soʻzlarni faqat hukmdoringizga va sizlarga gapirsin deb, meni yuboribdimi?! Devor ustida toʻplangan odamlarga ham gapiryapman–da. Ular ham, sizlar kabi, tezaklarini yeb, siydiklarini ichishga giriftor qilingan.
28 Soʻngra u tik turib, baland ovoz bilan ibroniycha gapirdi: "Ulugʻ Ossuriya shohining gaplarini eshiting! 29 Shoh hazratlari shunday aytmoqda: Hizqiyo sizlarni yoʻldan urmasin. U baribir sizlarni mening qoʻlimdan qutqara olmaydi. 30 «Egamiz bizni albatta qutqaradi, bu shahar Ossuriya shohi qoʻliga taslim boʻlmaydi», deb Hizqiyo sizlarni Egangizdan umidvor qilmasin.
31 Shohingiz Hizqiyoga quloq solmanglar. Mana, Ossuriya shohi aytmoqda: men bilan sulh tuzib, mening oldimga chiqinglar. Shunda har kimga oʻz uzumzoriyu anjir daraxti hosilidan yeyishga, oʻz sardobasidan suv ichishga ijozat beriladi. 32 Soʻngra men sizlarni oʻz oʻlkangizga oʻxshagan bir yurtga olib boraman. U joy bugʻdoy, sharob, non, uzumzorlarga, zaytun moyi va asalga boy yurtdir. Oʻlimni emas, hayotni tanlanglar. «Egamiz bizni qutqaradi», deb sizlarni aldamoqchi boʻlgan Hizqiyoga quloq solmanglar.
33 Qaysi xalqning xudosi oʻz yurtini men, Ossuriya shohining qoʻlidan qutqaribdi?!
34 Xomat bilan Arpad shaharlarining* xudolari qani?! Sefarvayimning, Xana va Ivvaxning* xudolari–chi?! Birorta xudo Samariyani* mening qoʻlimdan qutqara olmadi–ku! 35 Jamiki xalqlarning xudolaridan qaysi biri oʻz yurtini mening qoʻlimdan qutqaribdiki, Egangiz Quddusni qutqara olsa?!"
36 Ammo xalq jim turaverdi. Birontasi ham javob bermadi. Chunki shoh Hizqiyo: "Uning gapiga javob qaytarmanglar", deb farmon bergan edi. 37 Shundan keyin bosh vazir Eliyaqim, kotib Shavna va mushovir Yoʻx qaygʻudan liboslarini yirtib, Hizqiyoning oldiga keldilar–da, Ossuriyalik mulozimning gaplarini Hizqiyoga aytib berdilar.

19–BOB

Shoh Hizqiyo Ishayodan maslahat soʻraydi

1 Shoh Hizqiyo bularni eshitgach, qaygʻudan liboslarini yirtdi. Qanorga oʻranib*, Egamizning uyiga bordi. 2 U bosh vazir Eliyaqimni, kotib Shavnani va oqsoqol ruhoniylarni Omiz oʻgʻli Ishayo paygʻambarning huzuriga yubordi. Hammalari qanorga oʻranib olgan edilar.
3 Ular Ishayoning huzuriga borib, shunday dedilar:
— Hizqiyo aytyaptiki: "Bugun jafo chekyapmiz, jazo olyapmiz, sharmanda boʻlyapmiz. Biz tugʻayotgan, lekin tugʻish uchun madori qolmagan ayolga oʻxshaymiz.
4 Barhayot Xudoni tahqirlash uchun Ossuriya shohi oʻzining mulozimini yuboribdi.

Mulozimning so‘zlarini koshkiydi Egangiz Xudo eshitsa–yu, o‘sha so‘zlari uchun ularni jazolasa. Endi shahardagi tirik qolganlar uchun iltijo qiling.”

5 Shohning aytib yuborgan bu xabarini Ishayo eshitgach, 6 Hizqiyoning a’yonlariga shunday dedi:

— Shohingizga shu gaplarni yetkazinglar: “Egamiz shunday aytmoqda: Ossuriya shohining qullari Meni haqoratlab aytgan so‘zlaridan qo‘rqma. 7 Men Ossuriya shohining yuragiga g‘ulg‘ula solaman, u bir mish–mishni eshitib, o‘z yurtiga qaytib ketadi. Unga o‘z yurtida ajal keltiraman.”

Ossuriya shohining Hizqiyoga maktubi

8 Ossuriya shohi Sanxarivning Laxish shahridan* qaytib ketganini eshitib, shohning mulozimi ham orqasiga qaytdi. Shohni Libna shahriga qarshi urishayotgan yerida topdi.

9-10 Sanxariv: “Habashiston* shohi Tirxoqo sen bilan urush qilgani otlandi” degan xabarni eshitdi. U Habashistonga qarshi jang boshlashdan oldin Yahudo shohi Hizqiyoga yana odamlari orqali shu gapni yetkazdi:

> “Umid qilgan xudoying seni aldamasin: «Quddus Ossuriya shohiga taslim bo‘lmaydi», deb seni laqillatmasin. 11 Axir, o‘zing eshitgansan–ku! Ossuriya shohlari hamma yurtlarni yer bilan yakson qilgan. Endi sen qutulaman, deb o‘ylayapsanmi?! 12 Otalarim qancha xalqlarni xonavayron qildi. Ularni xudolari qutqarmadi–ku! Gozan, Xoron, Razaf aholisi, Talassarda yashagan Eden xalqlari qutula oldimi?! 13 Qani, ayt–chi, Xomat shahrining shohi qani endi?! Arpad, Sefarvayim, Xana, Ivvax shaharlarining shohlari qayerda?!”

Hizqiyoning ibodati

14 Hizqiyo xabarchilarning qo‘lidan maktubni olib o‘qigach, Egamizning uyiga kirdi. Maktubni Egamizning oldida ochib, yerga yoydi va 15 yolvorib ibodat qildi: “Ey ikki karub* orasida taxt qurgan Isroil xalqining Xudosi — Egamiz! Butun yer yuzidagi shohliklarning tanho Xudosi Sensan. Osmonni va yerni Sen yaratgansan. 16 Ey Egamiz! Quloq solib, eshit. Ey Egamiz, ko‘zlaringni ochib, qara. Sanxariv nimalar aytganini, u barhayot Xudoni qanday haqoratlaganini bilib qo‘y. 17 Ey Egamiz! Biz bilamizki, Ossuriya shohlari bir qancha xalqlarni va ularning yurtlarini vayron qilganlar. 18 O‘sha xalqlarning xudolarini olovda yoqib, yo‘q qilganlar. Chunki o‘sha narsalar xudolar emas, balki inson qo‘li bilan yog‘ochdan, toshdan yasalgan narsalar edi. 19 Ey Egamiz Xudo! Endi Sen bizni Sanxarivning qo‘lidan qutqargin, toki butun yer yuzidagi shohliklar Sening tanho Xudo ekaningni bilishsin, ey Egamiz!”

Ishayo bashorat qiladi

20 Omiz o‘g‘li Ishayo Hizqiyoga shunday xabar yubordi:

> “Isroil xalqining Xudosi — Egamiz aytmoqda: «Ossuriya shohi Sanxariv haqida qilgan iltijolaringni eshitdim.» 21 Egamiz unga qarshi shu so‘zlarni menga ayon qildi:
>
> «Bokira qiz* Quddus sendan nafratlanadi,
> Ustingdan kuladi.
> Go‘zal Sion* orqangdan masxara qiladi,

Boshini chayqaydi.

22 Kimni haqorat qilding oʻzi?
Kimni tahqirlading?
Kimga qoʻrs gapirding?
Kiborlarcha boqding, hey?
Isroil xalqining Muqaddas Xudosiga!
23 Xabarchilaring orqali Men, Rabbiyni haqorat qilding.
Oʻzing haqingda aytdingki:
‘Koʻplab jang aravalarim bilan
Togʻ choʻqqilarini zabt etdim.
Lubnondagi inson qadami yetmagan joylarga yetib bordim.
Eng baland sadr daraxtlarini,
Eng a’lo sarv daraxtlarini qoʻpordim.
Lubnonning eng kimsasiz maskanlariga,
Hatto eng qalin oʻrmonlariga yetib bordim.
24 Begona yurtlarda men quduqlar qazib,
Suvlaridan ichdim.
Misrning hamma daryolarini
Oyogʻim kafti bilan quritdim.’

25 Eshitmaganmisan, ey Sanxariv,
Ancha oldin moʻljallab qoʻygan edim,
Buni azaldan reja qilgan edim.
Endi amalga oshirdim.
Qal’alarni vayronaga aylantirsin deb,
Men senga kuch berdim.
26 Qoʻlu qanoti qirqildi shahar ahlining,
Vahimaga tushib, uyatga qoldilar.
Ular dalada oʻsgan oʻt, yangi maysalar kabidir.
Tomlarda oʻsgan maysalarga* oʻxshab,
Yetilmasdan oldin qurib qoldilar.

27 Seni har tomondan bilaman, ey Sanxariv!
Qachon urushga chiqib,
Uyingga qachon qaytishingni ham bilaman.
Bilaman: Mendan gʻazabdasan.
28 Mendan qattiq gʻazabdasan.
Manmanliging qulogʻimga yetib keldi.
Endi men burningdan halqamni,
Ogʻzingdan suvligʻimni oʻtkazaman*.
Kelgan yoʻlingdan seni qaytarib olib ketaman.»

29 Ey Hizqiyo, mana bular sen uchun nishona boʻladi: bu yil oʻz–oʻzidan yerdan oʻsib chiqqanlarini tanovul qilasiz. Ikkinchi yili ham oʻrnidan oʻsib chiqqanini yeysiz. Uchinchi yil esa urugʻ ekib, hosil oʻrasiz. Uzumzorlar barpo

qilib, mevasin tanovul qilasiz. 30 Yahudo xalqining qutulib qolganlari yana ildiz
otib, meva beradi. 31 Xalqning qolgani Quddusdan, qutulganlari Sion tog‘idan
keladi. Sarvari Olam O‘z g‘ayrati bilan buni amalga oshiradi.
32 Ossuriya shohi to‘g‘risida Egamiz shunday aytmoqda: Sanxariv bu shaharga
kirolmaydi, o‘qlar otolmaydi. Qalqoni bilan shaharga yaqinlashmaydi, shahar
devoriga qiyalatib tuproq uydirmaydi*. 33 Kelgan yo‘lidan qaytib ketadi, shaharga
kirmaydi, — deb aytmoqda Egamiz. 34 — O‘zimning haqi–hurmatim, qulim
Dovudning haqi–hurmati bu shaharni himoya qilib, saqlayman.”

35 O‘sha kechasi Egamizning farishtasi Ossuriyaliklarning qarorgohiga borib,
185.000 kishini o‘ldirdi. Ertasiga uyg‘onib qarasalar, qarorgoh jasadga to‘lib ketibdi.
36 Ossuriya shohi Sanxariv qarorgohni tashlab, orqaga qaytdi. U Naynavoga* qaytib,
o‘sha yerda qoldi. 37 Bir kuni Sanxariv o‘z xudosi Nisroxning uyida sajda qilayotgan edi,
o‘g‘illari Odrammalek bilan Sarizar unga qilich urib o‘ldirdi. Ikkovi ham Ararat yurtiga*
qochib ketdi. Sanxarivning o‘rniga o‘g‘li Isarxaddo‘n shoh bo‘ldi*.

20–BOB

Hizqiyo kasal bo‘ladi

1 O‘sha kunlari Hizqiyo tuzalmas xastalikka yo‘liqib, o‘lim to‘shagiga yotib qoldi.
Omiz o‘g‘li Ishayo payg‘ambar uning huzuriga kelib, shunday dedi: “Egamiz shunday
aytmoqda: tayyorgarligingni ko‘rib qo‘yaver, endi tuzalmaysan, o‘lasan.”
2 Hizqiyo yuzini devorga burib, Egamizga yolvordi: 3 “Ey Egam! Chin qalbimdan
Senga sodiq bo‘lib, yo‘llaringdan yurganimni va oldingda to‘g‘ri ishlar qilganimni esla.”
Shunday deb achchiq–achchiq yig‘ladi.
4 Ishayo saroyning ichkari hovlisidan chiqib ulgurmagan ham ediki, Egamiz unga
quyidagi so‘zlarini ayon qildi: 5 “Orqangga qaytib borib, xalqimning hukmdori Hizqiyoga
shu xabarni yetkaz: «Bobong Dovudning Xudosi — Egamiz shunday aytmoqda:
iltijolaringni eshitdim, ko‘z yoshlaringni ko‘rdim. Senga sog‘ligingni qaytaraman.
Uchinchi kuni Mening uyimga chiqasan. 6 Umringni yana o‘n besh yilga uzaytiraman.
Seni va bu shaharni Ossuriya shohining qo‘lidan xalos qilaman. O‘zim uchun va qulim
Dovudning haqi–hurmati uchun bu shaharni muhofaza qilaman.»”
7 Shundan keyin Ishayo:
— Anjir shirasini keltiringlar, shirani olib, yaraning ustiga qo‘yinglar, shunda
Hizqiyo sog‘ayadi, — dedi.
8 Hizqiyo Ishayodan:
— Egamiz meni sog‘aytirishini va uchinchi kuni Egamizning uyiga borishimni
qanday bilaman? Buni nima isbotlaydi? — deb so‘radi.
9 Ishayo shunday javob berdi:
— Egamiz bergan va’dasini bajarishini isbotlab, senga alomat ko‘rsatadi. Soya
Oxozning zinapoyasidan* o‘n qadam oldinga ketsinmi yoki o‘n qadam orqaga
surilsinmi?
10 — Soya zinapoyadan o‘n qadam ilgari ketmog‘i odatdagi holdir, shuning uchun o‘n
qadam orqaga surilsin, — dedi Hizqiyo.
11 Ishayo payg‘ambar Egamizga iltijo qilgan edi, Egamiz soyani Oxozning

zinapoyasidan o‘n qadam orqaga surdi.

Bobildan kelgan elchilar

12 O‘sha paytlarda Bobil shohi Baladon o‘g‘li Marduxbaladon* shoh Hizqiyoga
maktublaru hadyalar jo‘natdi. U Hizqiyoning xastalanganini eshitgandi. 13 Hizqiyo
elchilarni ko‘rib xursand bo‘ldi. Xazinasidagi bor narsa — omborlardagi hamma
qimmatbaho ashyolarini, oltinni, kumushni, xushbo‘y hidli ziravorlarni va moylarni,
qurol–yarog‘ omborini ularga ko‘rsatdi. Hizqiyoning saroyidayu o‘z shohligida ularga
ko‘rsatmagan hech narsasi qolmadi.
14 Ishayo payg‘ambar shoh Hizqiyoning huzuriga kelib:
— Bu odamlar qayerdan kelibdilar? Senga nima dedilar? — deb so‘radi.
— Uzoq bir yurtdan, Bobildan kelibdilar, — deb javob berdi Hizqiyo.
15 Ular saroyingda nimalarni ko‘rdilar? — deb so‘radi Ishayo.
— Saroyimdagi hamma narsani ko‘rdilar, — deya javob berdi Hizqiyo. —
Xazinalarimda men ularga ko‘rsatmagan hech narsa qolmadi.
16 Shunda Ishayo aytdi:
— Endi Egamizning so‘ziga quloq sol. 17 Egamiz aytmoqdaki: “Bir kun kelib,
saroyingdagi hamma narsa, ota–bobolaringning bugungacha to‘plab qoldirganlari
Bobilga tashib ketiladi. Hech narsa qolmaydi. 18 Sening pushti kamaringdan bino bo‘lgan
o‘g‘illaringdan ba’zilari ham olib ketiladi, ular Bobil shohining saroyida bichilgan qullar
bo‘lib xizmat qiladi.”
19 Hizqiyo Ishayoga:
— Egamiz sen orqali aytgan so‘zlar xosiyatlidir, — dedi–da, ichida: “Nima
bo‘lgandayam, umrim oxirigacha tinch, xotirjam yashar ekanman–ku”, deb o‘yladi.

Hizqiyo hukmronligining oxiri

20 Hizqiyoning boshqa ishlari, qahramonliklari, hovuz va quvur* qazib, qanday qilib
shaharga suv keltirgani to‘g‘risida “Yahudo shohlari tarixi” kitobida yozilgan. 21 Hizqiyo
olamdan o‘tgach, o‘rniga o‘g‘li Manashe shoh bo‘ldi.

21–BOB

Yahudo shohi Manashe

1 Manashe o‘n ikki yoshida shoh bo‘lib, Quddusda ellik besh yil hukmronlik qildi.
Onasining ismi Xafzibo edi. 2 U Egamiz oldida qabih ishlar qildi. Egamiz O‘z xalqi
Isroilning oldidan quvib yuborgan xalqlarning jirkanch odatlariga ergashdi. 3 Otasi
Hizqiyo yo‘q qilgan sajdagohlarni* qaytadan barpo etdi. U Isroil shohi Axab kabi Baalga
atab qurbongohlar qurdi, Asheraning* ustunini o‘rnatdi. Barcha samoviy jismlarga sajda
etib xizmat qildi.
4 Manashe Egamizning ulug‘lanishi kerak bo‘lgan uyida begona xudolarga atab
qurbongohlar qurdi. 5 Egamiz uyining ikkala hovlisida ham jamiki samoviy jismlarga
sajda qilish uchun qurbongohlar barpo qildirdi. 6 O‘g‘lini qurbonlik qilib, olovda
kuydirdi*, follar ochtirdi, ta’birchilarga e’tiqod qildi, arvoh chaqiruvchilarga maslahat
soldi. Egamiz oldida ko‘p qabih ishlar qilib, Uni g‘azablantirdi. 7 Manashe Asheraga atab
o‘yib ishlangan ustunni Egamizning uyiga qo‘ydi. Egamiz bu uy to‘g‘risida Dovud bilan
uning o‘g‘li Sulaymonga shunday degan edi*: “Men bu uyni va Quddusni Isroil qavmlari

yashaydigan maskanlar orasidan tanlab olganman. Men to abad o‘sha yerda
ulug‘lanaman. 8 Ular amrlarimni bitta qoldirmay bajarsalar, qulim Muso amr etgan
hamma qonunlarga rioya qilsalar, Isroil xalqining ota–bobolariga Men bergan yerdan
haydalishlariga yo‘l qo‘ymayman.”
9 Ammo xalq quloq solmadi. Manashe xalqni shu qadar yo‘ldan ozdirdiki, Kan’on
yurtidan Egamiz yo‘qotib yuborgan xalqlardan ham ko‘ra, ko‘proq qabih ishlar qildilar.
10 Egamiz O‘z qullari — payg‘ambarlar orqali shunday dedi:
11 — Yahudo shohi Manashe jirkanch ishlar qilgani, o‘zidan oldingi Amor
xalqlaridan* ham battar qabihliklar qilgani, butlar yasab, Yahudo xalqini gunohga
botirgani uchun 12 Men, Isroil xalqining Xudosi — Egangiz, aytmoqdaman: “Quddusning
va Yahudo xalqining boshiga shunday falokat keltiramanki, bu falokatni eshitganlarning
boshidan hushi uchadi. 13 Samariyaga qarshi ishlatgan o‘lchov ipini va Axabning
xonadoniga qarshi ishlatgan shoqulni* Quddusga qarshi ishlataman. Quddusni bu qabih
xalqdan tozalab tashlayman, uni toza kosaday to‘ntarib qo‘yaman. 14 O‘z xalqimning
omon qolganlaridan yuz o‘giraman va g‘animlarining qo‘liga taslim ettiraman. G‘animlar
Quddus aholisini talon–taroj qiladi, o‘lja qilib olib ketadi. 15 Chunki ular oldimda qabih
ishlar qildilar. Ota–bobolari Misrdan chiqqan kundan bugungacha bu xalq Meni
g‘azablantirib keladi.”
16 Manashe shunchalik ko‘p aybsiz qon to‘kdiki, Quddusni bu boshidan narigi
boshigacha qonga botirdi. Qon to‘kishdan tashqari, Yahudo xalqini gunohga botirdi, ular
Egamiz oldida qabihliklar qildilar.
17 Manashening boshqa ishlari, butun faoliyati, qilgan gunohlari haqida “Yahudo
shohlari tarixi” kitobida yozilgan. 18 Manashe olamdan o‘tdi va saroyidagi Uzzo degan
boqqa dafn etildi. O‘rniga o‘g‘li Omon shoh bo‘ldi.

Yahudo shohi Omon

19 Omon shoh bo‘lganda yigirma ikki yoshda edi. U Quddusda ikki yil hukmronlik
qildi. Onasining ismi Mashullamot bo‘lib, Yotbaxlik Xoruzning qizi edi. 20 Omon ham,
otasi Manashe kabi, Egamiz oldida qabih ishlar qildi. 21 Xuddi otasi yurgan yo‘llardan
yurib, o‘sha butlarga xizmat etib, sajda qildi. 22 Ota–bobolarining Xudosi — Egamizdan
yuz o‘girib, Uning yo‘lidan yurmadi.
23 Shoh Omonning a’yonlari fitna uyushtirib uni o‘z saroyida o‘ldirdilar. 24 Yahudo
xalqi o‘z shohi Omonga fitna uyushtirganlarning hammasini o‘ldirib, o‘rniga o‘g‘li
Yo‘shiyoni shoh qilib ko‘tardi. 25 Omonning boshqa ishlari “Yahudo shohlari tarixi”
kitobida yozilgan. 26 Omon Uzzo bog‘ida, ota–bobolari xilxonasiga dafn etildi. Uning
o‘rniga o‘g‘li Yo‘shiyo shoh bo‘ldi.

22–BOB

Yahudo shohi Yo‘shiyo

1 Yo‘shiyo sakkiz yoshida shoh bo‘lib, Quddusda o‘ttiz bir yil hukmronlik qildi.
Onasining ismi Yodido bo‘lib, Bozxatlik Odayoning qizi edi. 2 Yo‘shiyo Egamiz oldida
to‘g‘ri ishlar qildi. O‘ngga ham, chapga ham og‘masdan, bobosi Dovudning yo‘lidan
yurdi.

Qonun kitobi

3 Yo‘shiyoning Shofon degan kotibi bor edi. Shofon Mashullom degan odamning
nabirasi, Ozaliyo deganning o‘g‘li edi. Yo‘shiyo o‘z hukmronligining o‘n sakkizinchi yilida
Shofonni Egamizning uyiga yuborayotib, unga shu gaplarni aytdi: 4 “Oliy ruhoniy
Xilqiyoning huzuriga bor. Darvozabonlar xalqdan to‘plab, Egamizning uyiga keltirgan
kumushlarni u hisoblab chiqsin. 5-6 So‘ngra kumushlarni Egamizning uyida mehnat
qilayotgan ishboshilarga bersin. Ishboshilar esa kumushlarni olib, Egamizning uyidagi
buzilgan joylarni ta’mirlayotgan ustalarga — duradgorlarga, binokorlarga va tosh
teruvchilarga bersinlar. Uyning tuzatilishi uchun lozim bo‘lgan yog‘ochni, yo‘nilgan
toshni ham o‘sha kumushga sotib olishsin. 7 Ularga berilgan kumushning hisobi
so‘ralmasin, chunki ular halol ishlashyapti.”
8 Oliy ruhoniy Xilqiyo kotib Shofonga: “Egamizning uyidan Tavrot kitobini topib
oldim”, deb kitobni Shofonga berdi. Shofon kitobni o‘qidi. 9 Keyin shohning huzuriga
borib: “Xizmatkorlaringiz Egamizning uyidagi bor kumushni o‘sha yerdagi ishboshilarga
berdilar”, deb hisobot berdi. 10 Keyin u shohga: “Ruhoniy Xilqiyo menga kitob berdi”,
dedi–da, ovoz chiqarib shohga kitobni o‘qib berdi.
11 Shoh Tavrotda yozilgan so‘zlarni eshitgach, qayg‘udan liboslarini yirtib tashladi.
12 Keyin ruhoniy Xilqiyoga, Shofon o‘g‘li Oxixamga, Mixiyo o‘g‘li Axborga, kotib Shofonga
va o‘zining mulozimi Osoyohga shunday farmon berdi: 13 “Boringlar, topilgan bu
kitobdagi so‘zlarga muvofiq, men to‘g‘rimda ham, butun Yahudo xalqi to‘g‘risida ham
Egamizning xohish–irodasini bilinglar. Otalarimiz bu kitobdagi so‘zlarga quloq
solmaganlari, hammamiz uchun yozilgan bu so‘zlarga rioya qilmaganlari uchun,
Egamizning dahshatli g‘azabi bizga qarshi g‘oyatda alanga olgan.”
14 Ruhoniy Xilqiyo, Oxixam, Axbor, Shofon va Osoyoh Xulda ismli payg‘ambar ayol
huzuriga borib, unga maslahat soldilar. Xulda payg‘ambar Egamizning uyidagi
muqaddas liboslar posboni Shallumning xotini edi. Shallum Tixvoning o‘g‘li, Xarxasning
nabirasi edi. Xulda Quddusning Yangi dahasida yashardi. 15 Xulda ularga shunday dedi:

> “Isroil xalqining Xudosi — Egamiz aytmoqda: sizlarni Mening huzurimga
> yuborgan odamga shu gaplarimni aytinglar: 16 «Yahudo shohi o‘qigan kitobda
> yozilganday, bu yurtga ham, bu yurtda yashayotgan xalqqa ham falokat
> keltiraman. 17 Ular Mendan yuz o‘girganlari uchun, boshqa xudolarga
> qurbonliklar keltirib, o‘z qo‘llari bilan yasagan butlari tufayli* qahrimni
> keltirganlari uchun, bu yurtga qarshi g‘azabim alangalanadi va aslo bosilmaydi.»
> 18 Egamizning xohish–irodasini bilish uchun sizlarni yuborgan Yahudo
> shohiga shu xabarni beringlar: Isroil xalqining Xudosi — Egamiz sen eshitgan
> so‘zlaring to‘g‘risida shuni aytmoqda: 19 bu yurt vayron bo‘lib, bu yurtda
> yashaganlar la’nati bo‘lsin degan so‘zlarimni eshitganingdan keyin, yuraging
> yumshadi, Menga bo‘yin egding. Sen Menga bo‘yin egganing uchun, qayg‘udan
> liboslaringni yirtib, huzurimda yig‘laganing uchun Men iltijolaringni eshitdim.
> 20 Shunga ko‘ra, sen ota–bobolaring yoniga xotirjam ketasan, o‘z qabringga dafn
> etilasan. Bu yurtga Men keltiradigan jamiki falokatlarni sen ko‘rmaysan.”

Xilqiyo va uning hamrohlari bu xabarni shohga yetkazdilar.

23–BOB

Yo‘shiyo butparastlikni yo‘q qiladi

1 Shoh Yo‘shiyo xabar berib, Yahudo va Quddusning hamma oqsoqollarini huzuriga
to‘pladi. 2 Jamiki Yahudo xalqi va Quddus aholisi, ruhoniylar, payg‘ambarlar,
zodagonlaru avom xalq shoh boshchiligida Egamizning uyiga bordi. Shoh Egamizning
uyidan topilgan Tavrot kitobini* boshidan oxirigacha ularning oldida o‘qidi.
3 Shoh Egamizning uyi eshigi oldidagi ustun yonida turib: “Egamiz ko‘rsatgan yo‘ldan
yuraman, amrlariga itoat etaman, shartlariga, farmonlariga butun qalbim bilan, jonu
dilim bilan quloq solaman, bu kitobda yozilgan ahd so‘zlarini ado etaman”, deb Egamiz
bilan qayta ahd qildi.
Butun xalq bu ahdga qo‘shildi.
4 Shoh Yo‘shiyo: “Baalga, Asheraga* va barcha samoviy jismlarga atab qilingan
narsalar Egamizning uyidan olib chiqib tashlansin”, deb oliy ruhoniy Xilqiyoga, undan
keyingi ruhoniylarga, Egamizning uyi darvozabonlariga farmon berdi. O‘sha buyumlarni
Quddus tashqarisidagi Qidron soyligiga* chiqarib yoqtirdi, kulini Baytilga olib keltirdi.
5 Yahudo shohlari yurtning barcha shaharlaridagi va Quddus atrofidagi
sajdagohlarda* butparast ruhoniylarni tayinlagan edilar. O‘sha ruhoniylar
sajdagohlarda qurbonliklar keltirardi. Yo‘shiyo Baalga, quyoshga, oyga, sayyoralarga va
jamiki samoviy jismlarga qurbonlik qilgan o‘sha ruhoniylarni yo‘q qildi. 6 U Egamizning
uyidan Asheraning ustunini Quddus tashqarisiga — Qidron soyligiga chiqarib yoqdi.
Maydalab kul qilib, kulni avom xalqning qabrlari ustiga sepdi. 7 Fohishlarning* Egamiz
uyidagi hujralarini buzdi. U yerda ayollar Asheraga atab to‘quv ishlarini bajarishardi.
8 Yo‘shiyo Yahudo shaharlaridan hamma ruhoniylarni chiqarib yubordi. Gebodan
Bershebagacha ruhoniylar qurbonliklar keltiradigan sajdagohlarni bulg‘ab, harom qildi.
U Quddus hokimi Yoshua darvozasining kirishidagi sajdagohlarni yo‘qotdi. Bu darvoza
shaharga kirishda chap tomonda edi. 9 Sajdagohlarning ruhoniylari Egamizning
Quddusdagi qurbongohiga qurbonlik qilishmas, lekin ruhoniy birodarlarning ulushidan
xamirturushsiz non tanovul qila olardilar.
10 Yo‘shiyo, birortasi o‘g‘lini yoki qizini Mo‘laxga qurbonlik qilmasin, olovda
kuydirmasin* deb, Xinnum soyligidagi* Tofatda joylashgan sajdagohni bulg‘ab, harom
qildi. 11 Yahudo shohlari quyoshga atagan otlarning haykalini Egamizning uyi eshigi
oldidan yo‘qotdi. Otlar Egamiz uyining hovlisida — a’yon Natanmalekning xonasi yonida
edi. Yo‘shiyo quyoshga atalgan jang aravalarini ham olovda yoqdi.
12 Oxozning boloxonasi tomidagi Yahudo shohlari qildirgan qurbongohlarni ham,
Egamiz uyining ikkala hovlisida Manashe qildirgan qurbongohlarni ham buzdi va
maydalab tuyib, Qidron soyligiga sochib yubordi. 13 Quddusning sharqida — Makruh
tog‘ining janubida* Isroil shohi Sulaymon Sidonning makruh xudosi Ashtaret uchun,
Mo‘abning makruh xudosi Xamo‘sh uchun va Ommonning makruh xudosi Mo‘lax* uchun
qurdirgan sajdagohlarni bulg‘ab, harom qildi. 14 U butsimon toshlarni sindirib, Asheraga
atalgan ustunlarni qo‘porib tashladi, ularning o‘rnini inson suyaklari bilan to‘ldirdi*.
15 Bundan tashqari, Isroilni gunohga botirgan Nabat o‘g‘li Yeribom Baytilda
o‘rnatgan sajdagohni ham, qurbongohni* ham yo‘qotdi. Sajdagohga o‘t qo‘yib, kulini
ko‘kka sovurdi. U Asheraning ustuniga o‘t qo‘yib yubordi. 16 So‘ngra Yo‘shiyo qayrilib
qarab, adirdagi qabrlarni ko‘rdi. U yerdagi qabrlarni ko‘rgach, odamlarini yuborib,

mozorlardagi suyaklarni chiqartirdi, Egamizning so‘ziga binoan, suyaklarni qurbongohda yoqdi va shu tariqa qurbongohni bulg‘ab, harom qildi. Zotan, bu haqda payg‘ambar qurbongohga nido qilgan edi*.

17 — Anavi yodgorlik toshi kimniki? — deb so‘radi Yo‘shiyo.

— Yahudodan kelib, Baytildagi qurbongohda siz qilgan ishlar to‘g‘risida nido qilgan payg‘ambarning qabridir, — deya javob berishdi shahar aholisi.

18 — Unga tegmanglar, — dedi shoh. — Hech kim uning suyaklarini bezovta qilmasin.

Shunday qilib, payg‘ambarning suyaklariga ham, Samariyadan kelgan payg‘ambarning* suyaklariga ham tegmadilar.

19 Isroil shohlari butun yurt bo‘ylab begona xudolarning sajdagohlarini qurib Egamizni g‘azablantirgan edilar. Yo‘shiyo, xuddi Baytilda qilganiday, bu sajdagohlarni vayron qilish uchun sipohlar jo‘natdi. 20 O‘sha shaharlardagi sajdagohlarning hamma ruhoniylarini qurbongohlarda bo‘g‘izladi. Inson suyaklarini qurbongohlarda yoqdi. Shundan keyin Quddusga qaytib ketdi.

Yo‘shiyo Fisih ziyofatini nishonlaydi

21 Shoh: “Egangiz Xudoning Fisih ziyofatini bu Tavrot kitobida* yozilganiday nishonlang”, deb xalqqa farmon berdi. 22-23 Shunday qilib, Yo‘shiyo hukmronligining o‘n sakkizinchi yilida xalq Quddusga yig‘ilib, Egamizga atalgan Fisih ziyofatini katta qilib nishonladi. Isroilga rahnamolik qilgan hakamlar davridan buyon na Isroil shohlarining, na Yahudo shohlarining hukmronligi paytida Fisih ziyofati shu qadar nishonlanmagan edi.

Yo‘shiyo joriy qilgan islohotlar

24 Yo‘shiyo yana ruhoniy Xilqiyo Egamizning uyidan topgan kitobda yozilgan qonunni ijro etmoq maqsadida arvoh chaqiruvchilarni, folbinlarni, xonaki sanamlarni* va boshqa butlarni, Yahudo va Quddusda paydo bo‘lgan hamma makruh narsalarni yo‘q qilib tashladi. 25 Yo‘shiyodan oldin ham, keyin ham unga o‘xshab Musoning hamma qonunlariga muvofiq, butun qalbi bilan, jonu dili bilan, butun vujudi bilan Egamizga itoat etgan biron shoh chiqmadi.

26 Lekin Manashe qilgan gunohlari bilan Egamizning qattiq qahrini keltirgani uchun, Egamiz Yahudoga qarshi alangalangan g‘azabini hali qaytarmagan edi. 27 Shuning uchun Egamiz: “Isroil xalqini huzurimdan qanday haydagan bo‘lsam, Yahudo xalqini ham shunday haydayman. O‘zim tanlagan shahar — Quddusdan yuz o‘giraman. Ha, Men o‘sha yerda ulug‘lanaman, deb aytgan uyimni* tark etaman”, degan edi.

Yo‘shiyoning o‘limi

28 Yo‘shiyoning boshqa ishlari, butun faoliyati “Yahudo shohlari tarixi” kitobida yozilgan. 29 Yo‘shiyo hukmronligi paytida Misr fir’avni Nexo Ossuriya shohiga yordam berish uchun Furot daryosi tomon yo‘lga chiqdi. Shoh Yo‘shiyo esa Nexoning ustiga yurish qildi. Magido‘da* to‘qnashganlarida, Nexo Yo‘shiyoni o‘ldirdi*. 30 A’yonlari Yo‘shiyoning jasadini jang aravasida Magido‘dan Quddusga olib kelib, ota–bobolari xilxonasiga dafn qildilar. Yahudo xalqi Yo‘shiyoning o‘g‘li Yohuxozga moy surtib, uni otasining o‘rniga shoh qilib ko‘tardilar.

Yahudo shohi Yohuxoz

31 Yohuxoz yigirma uch yoshida taxtga o‘tirib, Quddusda uch oy shohlik qildi.
Onasining ismi Xamutal bo‘lib, Libnalik Yeremiyoning* qizi edi. 32 Yohuxoz ota–
bobolariga o‘xshab Egamiz oldida qabih ishlar qildi.
33 Fir’avn Nexo shoh Yohuxozning Quddusdagi hukmronligiga chek qo‘yib, uni Xomat
yurtidagi Rivlo shahrida* zanjirband qildi. Yurt xalqidan 200 pud* kumush va 2 pud*
oltin o‘lpon talab qildi. 34 Fir’avn Nexo Yo‘shiyoning o‘g‘li Eliyaqimni otasining o‘rniga
shoh qildi va ismini o‘zgartirib Yohayiqim qo‘ydi. So‘ngra Yohuxozni olib Misrga qaytdi.
Yohuxoz o‘sha yerda vafot etdi.

Yahudo shohi Yohayiqim

35 Yohayiqim fir’avn istagan oltin va kumushni berdi. Nexoga o‘lpon to‘lash uchun
esa yurt xalqiga soliq soldi va har biridan boyligiga qarab oltin va kumush yig‘di.
36 Yohayiqim yigirma besh yoshida shoh bo‘lib, Quddusda o‘n bir yil hukmronlik qildi.
Onasining ismi Zabudo bo‘lib, Rumaxlik Podiyoning qizi edi. 37 Yohayiqim, ota–bobolari
singari, Egamiz oldida qabih ishlar qildi.

24–BOB

1 Yahudo shohi Yohayiqim hukmronligi davrida Bobil shohi Navuxadnazar*
Yahudoga hujum qildi. Yohayiqim uch yil uning hukmdorligi ostida bo‘ldi. Oxiri u
Navuxadnazarga qarshi isyon ko‘tardi.
2 Egamiz O‘z qullari payg‘ambarlar orqali aytganiga ko‘ra, Yahudo xalqiga qarshi
Bobil*, Oram, Mo‘ab va Ommon bosqinchi to‘dalarini yuborib, bu yurt xalqini yo‘q
qilmoqchi bo‘ldi. 3-4 Egamizning amri bilan Yahudo xalqining boshiga ko‘p kulfatlar
keldi. Manashe qilgan barcha gunohlari uchun, aybsizlarning qonini to‘kkani uchun
Egamiz Yahudo xalqini O‘z huzuridan haydamoqchi bo‘ldi. Manashe Quddusni
aybsizlarning qoniga botirgan edi. Egamiz Manasheni bu qilmishi uchun kechirmoqchi
emasdi.
5 Yohayiqimning boshqa ishlari, butun faoliyati “Yahudo shohlari tarixi” kitobida
yozilgan. 6 Yohayiqim olamdan o‘tgach, o‘rniga o‘g‘li Yohayixin shoh bo‘ldi.
7 Misr fir’avni qaytib o‘z yurtidan tashqariga chiqmadi*. Bobil shohi Misrning
shimoliy chegarasi — Misr chegarasidagi irmoqdan* tortib, Furot daryosigacha
fir’avnga qarashli bo‘lgan hamma yerlarni bosib olgan edi.

Yahudo shohi Yohayixin

8 Yohayixin o‘n sakkiz yoshida shoh bo‘lib, Quddusda uch oy hukmronlik qildi.
Onasining ismi Naxushta bo‘lib, Qudduslik Elnatanning qizi edi. 9 Yohayixin ham, otasi
kabi, Egamiz oldida qabih ishlar qildi.
10 O‘sha paytda Bobil shohi Navuxadnazarning lashkari Quddusni qamal qildi.
11 Qamal paytida Navuxadnazarning o‘zi Quddusga keldi. 12 Yahudo shohi Yohayixinning
o‘zi, onasi, xizmatkorlari, lashkarboshilari, saroy a’yonlari Navuxadnazarga taslim
bo‘ldilar. Bobil shohi hukmronligining sakkizinchi yilida* Yohayixin asirga olindi.
13 Egamizning aytgani bo‘yicha*, Navuxadnazar Egamizning uyidagi va shoh
saroyidagi barcha xazinalarni bo‘shatdi. Isroil shohi Sulaymon Egamizning uyi uchun
yasattirgan oltin ashyolarning hammasini maydaladi. 14 Jamiki Quddus aholisini,
beklarni, jasur sipohlarni, hunarmandlarni, temirchilarni, hammasi bo‘lib o‘n mingta

odamni asir qilib olib ketdi. Yahudo xalqining eng qashshoqlaridan boshqa hech kim bu yurtda qolmadi.

15 Bobil shohi Navuxadnazar Yohayixinni asir qilgandan keyin, Bobilga olib ketdi. Yohayixin bilan birga uning onasini, xotinlarini, a'yonlarini va yurtning obro'li odamlarini ham Quddusdan Bobilga haydab ketdi. 16 Bundan tashqari, hamma jasur sipohlarni — yetti mingta sipohni, jang qilishga qodir mingta hunarmand va temirchini ham asir qilib olib ketdi.

17 Yohayixinning o'rniga esa amakisi Mattaniyoni shoh qilib tayinladi va uning otini o'zgartirib, Zidqiyo qo'ydi.

Yahudo shohi Zidqiyo

18 Zidqiyo yigirma bir yoshida shoh bo'ldi va Quddusda o'n bir yil hukmronlik qildi. Onasining ismi Xamutal bo'lib, Libnalik Yeremiyoning* qizi edi. 19 Zidqiyo ham, Yohayiqim kabi, Egamiz oldida qabih ishlar qilgani uchun 20 Egamiz Quddus va Yahudo xalqidan g'oyat g'azablangan, oqibatda ularni O'z huzuridan quvib yuborgan edi.

Quddus qulaydi

Zidqiyo Bobil shohiga qarshi isyon ko'tardi.

25–BOB

1 Zidqiyo hukmronligining to'qqizinchi yili o'ninchi oyining* o'ninchi kunida Bobil shohi Navuxadnazar Quddusga qarshi butun lashkarini tortib kelib, shaharni qamal qildi. Shahar devori atrofida qamal inshootlarini* yasatdi.

2 Shoh Zidqiyo hukmronligining o'n birinchi yiligacha shahar qamalda qoldi. 3 To'rtinchi* oyning* to'qqizinchi kuni shaharda ocharchilik shu qadar kuchaydiki, xalq bir burda nonga zor bo'ldi. 4 Bobilliklar* Quddus devorini yorib kirdilar. Ular Quddusni har tomondan qurshab olishgan bo'lsalar–da, Yahudo sipohlari shoh bilan birga qochib ketdilar. Ular tunda saroyning bog'i yaqinidagi ikki devor orasidagi darvozadan chiqib, Iordan vodiysi* tomonga qochgan edilar. 5 Ammo Bobil sipohlari shohning orqasidan quvib, Yerixo tekisligida unga yetib oldilar. Butun lashkar esa shohni tashlab qochib ketdi.

6 Bobil sipohlari shoh Zidqiyoni ushlab, Rivlo shahriga* Bobil shohi huzuriga olib keldilar. Bobil shohi Zidqiyoni hukm qildi. 7 Zidqiyoning ko'zi oldida o'g'illarini qatl qilib, o'zining ko'zlarini o'yib oldilar. Keyin uni kishanlab, Bobilga olib ketdilar.

Ma'bad vayron bo'ladi

8 Beshinchi oyning yettinchi kunida, Bobil shohi Navuxadnazar hukmronligining o'n to'qqizinchi yilida* Bobil shohining amaldori — qo'riqchilar sardori Nabizaradon Quddusga kirdi. 9 U Egamizning uyiga, shoh saroyiga, har bir hashamatli imoratga, Quddusdagi hamma uylarga o't qo'ydi. 10 Qo'riqchilar sardori boshchiligida butun Bobil lashkari Quddus devorlarini yiqitdi. 11 Nabizaradon qolgan hamma xalqni — shaharda tirik qolganlarni, Bobil shohi tomonga o'tgan qochoqlarni asir qilib olib ketdi. 12 Uzumchilik va dehqonchilik bilan mashg'ul bo'lsinlar deya, hech vaqosi yo'q, qashshoq odamlardan ba'zilarinigina qoldirdi, xolos.

13 Bobilliklar Egamizning uyidagi bronza ustunlarni, aravalarni, bronza hovuzni* parchalab, bronzaning hammasini Bobilga olib ketdilar. 14 Egamizning uyida xizmat

paytida ishlatiladigan idishlarni — qozonlarni, kuraklarni, qaychilar va kurakchalarni, barcha bronza ashyolarni ham olib ketdilar. 15 Nabizaradon toza oltin va kumush olovkuraklarni, tog‘orachalarni, hamma oltin va kumush buyumlarni olib ketdi.
16 Egamizning uyi uchun Sulaymon qildirgan ikki ustun, hovuz va aravalarga behisob bronza sarf qilingan edi. 17 Har bir ustunning balandligi 18 tirsak* bo‘lib, tepasida bronzadan yasalgan ustunqosh bor edi. Ikkala ustunqoshning balandligi 5 tirsakdan*, atroflari bronzadan yasalgan to‘rsimon bezak va anor* tasviri bilan bezatilgan edi.

Yahudo xalqi Bobilga ko‘chiriladi

18 Qo‘riqchilar sardori Nabizaradon oliy ruhoniy Sarayoni, undan keyingi ruhoniy Zafaniyoni va uchta darvozabonni ham asirga oldi. 19 Quddusda qolgan sipohlarning lashkarboshisini, shohning beshta shaxsiy maslahatchisini, xalqni lashkar safiga yozgan lashkarboshining kotibini va xalqdan shaharda qolgan oltmish kishini ham bandi qildi.
20 Ularning hammasini Rivlo shahriga — Bobil shohi huzuriga olib keldi. 21 Bobil shohi ularni Xomat yurtida — Rivloda qatl qildi. Shunday qilib, Yahudo xalqi o‘z yurtidan surgun bo‘ldi.

Yahudo hokimi Gadaliyo

22 Bobil shohi Navuxadnazar Yahudoda qolgan xalq ustidan Gadaliyoni hokim qilib tayinladi. Shofonning nabirasi Gadaliyo Oxixamning o‘g‘li edi. 23 Bobil shohi Gadaliyoni hokim qilib tayinlaganini lashkarboshilar va sipohlar eshitishgach, Mispaxga*, Gadaliyoning huzuriga keldilar. Kelganlar Nataniyo o‘g‘li Ismoil, Kariyox o‘g‘li Yo‘xanon, Natufolik Tanxumat o‘g‘li Sarayo, Maxolik Yazaniyo va ularning odamlari edi.
24 Gadaliyo kelganlarga va ularning odamlariga ont ichib, shunday dedi:
“Bobilliklarga tobe bo‘lishdan qo‘rqmanglar. Bu yurtda o‘rnashib, Bobil shohiga xizmat qilaveringlar. Shunda sizlarga yaxshi bo‘ladi.”
25 O‘sha yilning yettinchi oyida* shoh urug‘idan bo‘lgan Ismoil o‘nta odami bilan birga Mispaxga borib, Gadaliyoni o‘ldirdi. Ismoil Elishamaning nabirasi, Nataniyoning o‘g‘li edi. U Mispaxda Gadaliyo bilan birga bo‘lgan Yahudo odamlarini va Bobilliklarni ham qilichdan o‘tkazdi. 26 Shundan keyin jamiki xalq — boyu kambag‘al Bobilliklardan qo‘rqib, lashkarboshilar bilan birga, Misrga qochib ketdi.

Yohayixin ozodlikka chiqadi

27 Yahudo shohi Yohayixin Bobilga surgun qilinganiga o‘ttiz yetti yil bo‘lganda, Bobil taxtiga Evilmardux o‘tirdi*. Evilmardux o‘sha yilning o‘n ikkinchi oyi yigirma yettinchi kuni* Yahudo shohi Yohayixinni zindondan ozod qildi. 28 Unga yaxshi munosabatda bo‘ldi, Bobilga surgun qilingan boshqa shohlardan ko‘ra, balandroq martaba berdi.
29 Shunday qilib, Yohayixin zindon kiyimlarini yechdi. Umr bo‘yi doimo Bobil shohining dasturxonidan taom yedi. 30 Umrining oxirigacha shoh tarafidan kundalik ehtiyoji har doim qondirildi.

IZOHLAR

1:1 *Isroil* — mazkur kitobda shimoliy shohlik *Isroil* degan nom bilan, janubiy shohlik esa *Yahudo* degan nom bilan yuritilgan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi ISROIL va YAHUDO so‘zlariga qarang.

1:1 *Isroil shohi Axabning vafotidan keyin…* — shoh Axab taxminan miloddan oldingi 850 yilda vafot etdi.

1:1 *Mo‘ab yurti* — O‘lik dengizning sharqiy qirg‘og‘ida joylashgan.

1:1 *…Mo‘ab yurti Isroilga qarshi isyon ko‘tardi* — Mo‘ab yurtini shoh Dovud bosib olib, o‘ziga qaram qilib olgan edi (2 Shohlar 8:2 ga qarang). Mo‘ab isyonining batafsil bayoni 3:4-27 da yozilgan.

1:2 *…saroyining tomi…* — qadimgi paytlarda uylarning tomi tekis bo‘lib, odatda atrofi panjara yoki to‘siq bilan o‘ralgan edi. Odamlar tomga chiqib dam olishardi.

1:2 *Exron shahri* — Exron Filistlarning muhim ahamiyatga ega bo‘lgan shahri edi. Exron Samariyadan qariyb 65 kilometr janubi–g‘arbda joylashgan.

1:2 *Baal–Zabub* — Exron aholisi Kan’on xudosi Baalni shu nom bilan atashardi. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi BAAL so‘ziga qarang.

1:9 *Xudoning odami* — Egamiz payg‘ambarining yana bir nomi.

1:17 *…Yoram shoh bo‘ldi. Bu voqea yuz berganda, Yahudo shohi Yohuram ikkinchi yil shohlik qilayotgan edi* — 3:1 ga ko‘ra, bu voqea Yahudo shohi Yohuramning otasi Yohushafat hukmronligining o‘n sakkizinchi yilida yuz bergan. Qadim zamonlarda ota bilan o‘g‘il bir vaqtning o‘zida taxtda o‘tirib hukmronlik qilgan hollar ham bo‘lgan. Shoh ota vafot etgan paytda, o‘g‘il anchadan beri shohlikni boshqarib kelayotgan bo‘lar edi (yana 8:16 ga qarang).

2:1 *Gilgal shahri* — Baytildan qariyb 13 kilometr shimolda joylashgan.

2:9 *…menga ikki hissa ko‘p meros qolsin…* — qonun bo‘yicha, qadimgi Isroilda to‘ng‘ich o‘g‘ilga otasidan ikki hissa meros qolar edi, bu oyatda Elishay to‘ng‘ich o‘g‘ilning ulushini so‘rayapti (Qonunlar 21:17 ga qarang).

2:12 *…egnidagi kiyimini ikkiga bo‘lib tashladi* — bu harakat qayg‘uning bir belgisi edi.

2:22 *…hozirgacha…* — shu kitob yozilgan vaqtga ishora.

3:1 *Yoram* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Yohuram* (shu bobning 6–oyatida ham bor).

3:1 *…Yoram Samariyada Isroil taxtiga o‘tirdi…Bu paytda Yohushafat Yahudoda shohlik qilayotganiga o‘n sakkiz yil bo‘lgan edi* — 1:17 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

3:2 *Baalga atab o‘rnatgan tosh* — lug‘atdagi BUTSIMON TOSH iborasiga qarang.

3:3 *…Isroil xalqini gunohga botirgan Nabat o‘g‘li Yeribom qilgan gunohlar…* — Yeribom Isroilda hukmronlik qilgan vaqtda, Isroil xalqi sajda qilsin deb, ikkita oltin buzoq yasagan va birini Baytil shahriga, ikkinchisini Dan shahriga o‘rnashtirgan edi (3 Shohlar 12:26-30 ga qarang).

3:4 *Mo‘ab* — bu yurt O‘lik dengizning sharqiy qirg‘og‘ida joylashgan edi.

3:8 *Edom* — bu yurt O‘lik dengizning janubida joylashgan edi. Yoram O‘lik dengizni aylanib o‘tib, Mo‘abga janub tomondan hujum qilishni rejalashtirgan edi.

3:11 *…u doimo Ilyosning xizmatida bo‘lgan edi…* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *…u Ilyosning qo‘liga suv quyib turar edi…*.

3:13 *…o‘z ota–onangning payg‘ambarlari…* — bu yerda Kan’on xalqlarining xudolari Baal va Ashera nazarda tutilgan (3 Shohlar 16:30-33, 18:19 ga qarang). Shoh Yoramning otasi Axab va onasi Izabel o‘sha xudolarga sajda qilishar edi.

3:20 *…ertalabki qurbonlik paytida…* — ertalab soat to‘qqizlarda.

4:8 *Shunam* — Isroildagi bir shahar, Samariyadan qariyb 40 kilometr shimolda joylashgan.

4:16 *Xudoning odami* — Egamiz payg‘ambarining yana bir nomi.

4:23 *…Yangi oy shodiyonasi kuni…Shabbat kuni…* — tabarruk kunlar bo‘lib, odamlarning nazarida payg‘ambardan maslahat olish uchun eng yaxshi payt hisoblanardi.

4:25 *Karmil tog‘i* — Shunamdan qariyb 32 kilometr shimoli–g‘arbda joylashgan.

4:38 *Gilgal* — Baytildan qariyb 13 kilometr shimolda joylashgan shahar.

4:42 *Baal–Sholisho shahri* — bu shahar Isroilning aynan qayerida joylashgani ma’lum emas, ehtimol Shakam atroflarida joylashgan bo‘lishi mumkin.

5:1 *teri kasalligi* — bu ibora ibroniychada har xil teri kasalliklariga nisbatan ishlatilgan so‘zning tarjimasidir (shu bobning 6, 11, 27–oyatlarida ham bor). Odatda bu ibora moxov kasalligiga ishora deb tushuniladi.

5:3 *Samariyadagi payg‘ambar* — Elishay payg‘ambar nazarda tutilgan.

5:5 *Isroil shohi* — Isroil shohi Yoram nazarda tutilgan (3:1 ga qarang).

5:5 *yigirma bir pud* — ibroniycha matnda *o‘n talant*, taxminan 340 kiloga to‘g‘ri keladi.

5:5 *to‘rt pud* — ibroniycha matnda *olti ming shaqal*, taxminan 68 kiloga to‘g‘ri keladi.

5:17 *…qulingizga ikkita xachir ko‘tara oladigan tuproq olib ketishga ijozat bering* — qadimda odamlar, har bir yurtning o‘z xudosi bor va u xudolarga faqatgina o‘sha yurtlarda yoki o‘sha yurtning tuprog‘idan qurilgan qurbongohda sajda qilish mumkin, deb ishonishgan.

5:22 *ikki pud* — ibroniycha matnda *bir talant*, taxminan 34 kiloga to‘g‘ri keladi.

5:23 *to‘rt pud* — ibroniycha matnda *ikki talant*, taxminan 68 kiloga to‘g‘ri keladi.

6:13 *Do‘tan* — Samariyadan qariyb 15 kilometr shimoli–g‘arbda joylashgan shahar.

6:24 *Oram shohi Banhadad* — Oramning bir nechta shohi Banhadad ismi bilan atalgan edi. Bu oyatdagi Banhadad 3 Shohlar 20:1 da aytib o‘tilgan Banhadad bo‘lmasligi ham mumkin.

6:25 *sakson kumush tanga* — ibroniycha matnda *sakson shaqal kumush*, taxminan 900 grammga to‘g‘ri keladi.

6:25 *ikki kosa kaptar axlati* — ibroniycha matnda *chorak qab kaptar axlati*, taxminan 300 millilitrga to‘g‘ri keladi. *Kaptar axlati* yegulik yoki yonilg‘i sifatida ishlatilgan bo‘lishi mumkin. Bu, ehtimol, ayrim o‘simlik urug‘larining po‘stlog‘idan yoki qovurilgan

loviyadan tayyorlanadigan biror taomning og‘zaki nomi ham bo‘lgandir.

6:25 *besh kumush tanga* — ibroniycha matnda *besh shaqal kumush*, taxminan 55 grammga to‘g‘ri keladi.

6:26 *Isroil shohi* — bu o‘rinda Yohuxoz yoki Yo‘sh, hattoki Yoram ham nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin.

6:30 *…qayg‘udan liboslarini yirtdi…libosi ichidagi qanor…* — qanor dag‘al qoramtir mato bo‘lib, echki yoki tuya junidan to‘qilgan. Kiyimlarni yirtish va qanor kiyib olish umidsizlikni va qayg‘uli holatni ifodalaydi.

7:1 *yarim tog‘ora* — ibroniycha matnda *bir sexa*, taxminan 7,5 kiloga to‘g‘ri keladi (shu bobning 16, 18–oyatlarida ham bor).

7:1 *bir kumush tanga* — ibroniycha matnda *bir shaqal kumush*, taxminan 11 grammga to‘g‘ri keladi (shu bobning 16, 18–oyatlarida ham bor).

7:1 *bir tog‘ora* — ibroniycha matnda *ikki sexa*, taxminan 15 kiloga to‘g‘ri keladi (shu bobning 16, 18–oyatlarida ham bor).

7:3 *teri kasalligi* — bu ibora ibroniychada har xil teri kasalliklariga nisbatan ishlatilgan so‘zning tarjimasidir (shu bobning 8–oyatida ham bor). 5:1 izohiga qarang.

8:1 *…o‘zi tiriltirgan bola…* — bu voqeaning batafsil bayoni 4:8-37 da berilgan.

8:8 *…Xazayil degan odam…* — Banhadadning a’yonlaridan biri bo‘lishi mumkin.

8:13 *…sen Oram shohi bo‘lasan…* — ilgari Xudo buni Ilyos payg‘ambarga ayon qilgan edi (3 Shohlar 19:15 ga qarang). Ilyos payg‘ambar Elishayning ustozi edi.

8:16 *Yohushafat hali Yahudo shohi bo‘lib turganda, uning o‘g‘li Yohuram ham taxtga o‘tirdi* — qadim zamonlarda ota bilan o‘g‘il bir vaqtning o‘zida taxtda o‘tirib hukmronlik qilgan hollar ham bo‘lgan. Shoh ota vafot etgan paytda, o‘g‘il anchadan beri shohlikni boshqarib kelayotgan bo‘lar edi.

8:21 *Yohuram* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Yoram* (shu bobning 23, 24–oyatlarida ham bor).

8:22 *…hozirgacha…* — shu kitob yozilgan vaqtga ishora.

8:22 *Libna shahri* — Quddusdan qariyb 20 kilometr g‘arbda joylashgan.

8:28 *Gilad* — Iordan daryosining sharq tomonidagi o‘lka.

8:29 *Yizril shahri* — Isroilning shimolida, Ramo‘tdan qariyb 65 kilometr masofada joylashgan.

9:15 *Yoram* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Yohuram* (shu bobning 17, 21, 22, 23, 24–oyatlarida ham bor).

9:15 *Yoram…Yizrilga qaytgan edi* — 8:28-29 ga qarang.

9:21 *…Yizrillik Navo‘tning dalasi…* — Navo‘t va uning dalasi bilan bog‘liq bo‘lgan voqeaning bayoni 3 Shohlar 21:1-29 da berilgan.

9:27 *…Bayt–Xagon shahriga qarab qochdi…* — yoki *…bog‘dagi uyning yo‘lidan qochdi….*

9:31 *…hukmdorini o‘ldirgan Zimri…* — Zimri lashkarboshi edi, u taxtni egallash niyatida Isroil shohi Eloxni va uning butun oilasini o‘ldirgan edi. Ammo Zimrining hukmronligi

yetti kun davom etgan, xolos (3 Shohlar 16:8-20 ga qarang).

9:34 *shoh qizi* — Izabel Sidon shohi Etbaalning qizi edi (3 Shohlar 16:31 ga qarang).

9:36 *Egamizning…aytgan bu so‘zlari bajo bo‘ldi* — Egamiz aytgan so‘zlarning batafsil bayoni 3 Shohlar 21:23 da berilgan.

10:10 *Egamiz…aytgan so‘zini bajo qildi* — Egamiz aytgan so‘zlarning batafsil bayoni 3 Shohlar 21:17-24 da berilgan.

10:21 *Baalning uyi* — bu ibodatxonani Izabelning eri shoh Axab qurdirgan edi (3 Shohlar 16:32 ga qarang).

10:27 *Baalga atalgan tosh* — lug‘atdagi BUTSIMON TOSH iborasiga qarang.

10:27 *…bugungacha…* — shu kitob yozilgan vaqtga ishora.

10:29 *…Isroil xalqini gunohga botirgan Nabat o‘g‘li Yeribom qilgan gunohlar…Baytil va Dandagi oltin buzoqlarga sajda qilish…* — voqeaning tafsiloti bilan tanishish uchun 3 Shohlar 12:26-30 ga qarang.

11:1 *Otaliyo* — Isroil shohi Axabning qizi — Yahudo shohi Yoramning bevasi edi (8:16-18, 26 ga qarang).

11:2 *Yohuram* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Yoram*.

11:2 *Yohusheva* — 2 Solnomalar 22:11 ga ko‘ra, Yohusheva ruhoniy Yohayidoning xotini edi (shu bobning 4–oyatiga qarang).

11:4 *Xaryollik qo‘riqchilar* — shoh yollagan bu muhojir sipohlar shohning shaxsiy qo‘riqchilari bo‘lib xizmat qilgan.

11:12 *shohlik qonunlari* — yoki *shohlik muhri*. Bu o‘rinda ishlatilgan ibroniycha so‘z qonunlarning bir nusxasini (Qonunlar 17:18-19 ga qarang) yoki shohlik muhri bo‘lgan uzukni bildiradi. Bunday muhr shoh hokimiyatining ramzi edi.

11:21 *Yo‘sh* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Yoho‘sh*.

12:1 *Yo‘sh* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Yoho‘sh* (shu bobning 2, 4, 6, 7, 18–oyatlarida ham bor).

12:3 *sajdagoh* — ibroniycha matnda *bamax*, ya’ni “tepalik”. Kan’on xudolariga topinadigan joylar *bamax* deb atalardi. Odatda bu sajdagohlar tepaliklarda joylashgan bo‘lib, u yerda Kan’on xudolarining tasvirlari va qurbonliklar keltirish uchun qurbongoh bo‘lardi. Ba’zi bir paytlarda odamlar mana shu mahalliy sajdagohlarda Egamizga sajda qilardilar.

12:17 *Gat shahri* — O‘rta yer dengizi bo‘yida joylashgan bu shahar Filistlarning beshta asosiy shahridan biri edi.

12:20 *Millo* — Quddus shahri tepalik ustida edi. Bu tepalikning sharq tomoni o‘pirilib ketgani uchun uni tuzatish shart bo‘lgan. Tepalikning o‘pirilib ketgan joyi tuproq bilan to‘ldirilgan, kengaytirilgan va mustahkamlangan edi. Tepalikning bu qismi Millo deb atalardi.

13:5 *…bir qutqaruvchi…* — kim nazarda tutilgani ma’lum emas.

13:6 *Ashera* — Kan’ondagi xalqlar sajda qilgan hosildorlik xudosi bo‘lib, ayol qiyofasida tasavvur qilingan. Uning erkak jufti Baal edi. Asheraning tasvirlari baland ustun

shaklida bo‘lib, yog‘ochdan yasalgan edi.

13:9 *Yoho‘sh* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Yo‘sh* (shu bobning 10, 12, 13, 14, 25–oyatlarida ham bor).

13:14 *Otam! Otam! ...Siz Isroilning qudratli himoyachisisiz–ku! Isroilning jang aravasi va otliq lashkari kabisiz!* — Elishay shu so‘zlar bilan Ilyosga murojaat qilgan edi (2:12 ga qarang).

13:23 *...hozirgacha...* — shu kitob yozilgan vaqtga ishora.

14:1 *Yoho‘sh* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Yo‘sh* (shu bobning 23–oyatida ham bor).

14:4 *sajdagohlar* — 12:3 izohiga qarang.

14:6 *...Egamiz...amr qilgan edi* — Qonunlar 24:16 ga qarang.

14:7 *Tuz vodiysi* — O‘lik dengizning janubidagi o‘lka.

14:11 *Bayt–Shamash shahri* — Quddusdan qariyb 24 kilometr janubi–g‘arbda joylashgan edi.

14:13 *400 tirsak* — taxminan 180 metrga to‘g‘ri keladi.

14:19 *Laxish shahri* — Quddusdan qariyb 35 kilometr janubi–g‘arbda joylashgan edi.

14:21 *Uzziyo* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Ozariyo*.

14:22 *Elet shahri* — Sinay yarim orolining sharqida, Qizil dengizning shimoliy qirg‘og‘idagi bandargoh shahar. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi BANDARGOH so‘ziga qarang.

14:25 *Levo–Xomat* — yoki *Xomat dovoni*.

14:25 *O‘lik dengiz* — ibroniycha matnda *Araba dengizi*. Araba umumiy geografik nom bo‘lib, bu oyatda O‘lik dengiz joylashgan cho‘l yerlarni bildiradi.

14:28 *...Yahudoga qarashli bo‘lgan Damashq va Xomat...* — bu o‘rinda ikkita shohlikka tegishli bo‘lgan hudud haqida gap ketyapti. Bu hududlarning markazlari Damashq va Xomatda joylashgan edi. Ilgari, Dovud va Sulaymon hukmronligi davrida, bu joylar Yahudoga qarashli edi.

15:1 *Uzziyo* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Ozariyo* (shu bobning 6, 7, 8, 17, 23, 27–oyatlarida ham bor).

15:4 *sajdagohlar* — 12:3 izohiga qarang.

15:5 *teri kasalligi* — bu ibora ibroniychada har xil teri kasalliklariga nisbatan ishlatilgan so‘zning tarjimasidir. 5:1 izohiga qarang.

15:12 *...Egamizning Yohuga...aytgan va’dasi amalga oshdi* — Zakariyo Yohuning chevarasi edi (10:28-31 ga qarang).

15:14 *Tirza* — Isroilning, ya’ni shimoliy shohlikning sobiq poytaxti (3 Shohlar 16:23-24 ga qarang).

15:19 *Tig‘latpilasar* — ibroniycha matnda *Pul*, Tig‘latpilasarning yana bir ismi. Tig‘latpilasar miloddan oldingi 745-727 yillarda Ossuriyada hukmronlik qilgan.

15:19 *2000 pud* — ibroniycha matnda *1000 talant*, taxminan 34 tonnaga to‘g‘ri keladi.

15:20 *ellik kumush tanga* — ibroniycha matnda *ellik shaqal kumush*, taxminan 600 grammga to‘g‘ri keladi.

15:29 *Tig‘latpilasar* — miloddan oldingi 745-727 yillarda hukmronlik qilgan. Bu oyatda tasvirlangan hodisalar taxminan miloddan oldingi 733 yilda ro‘y bergan.

16:3 *…hatto o‘z o‘g‘lini qurbonlik qilib, olovda kuydirdi* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *…hatto o‘z o‘g‘lini olovdan o‘tkazdi*. Butparast xalqlarga xos bo‘lgan bu jirkanch odat Xudoning nazarida o‘taketgan qabihlik edi.

16:4 *sajdagohlar* — 12:3 izohiga qarang.

16:6 *Oram xalqi* — ibroniycha matnda *Edomliklar* nazarda tutilgan bo‘lishi ham mumkin.

16:7 *…sizga qaramman…* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *…o‘g‘lingizman…*.

16:17-18 *…aravalar…Bronzadan yasalgan buqalar…hovuz…* — bu buyumlar Sulaymon hukmronlik qilgan davrda yasalgan edi. Bu buyumlarning batafsil bayoni 3 Shohlar 7:23-39 da berilgan.

17:3 *Ossuriya shohi Shalmanasar* — Tig‘latpilasarning o‘g‘li bo‘lib, miloddan oldingi 727-722 yillarda Ossuriyada hukmronlik qilgan.

17:6 *Ossuriya shohi* — Shalmanasarning vorisi Sargon II nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin.

17:6 *…Samariyani qo‘lga kiritib…* — bu voqea miloddan oldingi 722 yilda sodir bo‘lgan.

17:8 *Isroil shohlari* — bu yerda Isroilning, ya’ni shimoliy shohlikning shohlariga nisbatan aytilgan.

17:9 *sajdagohlar* — 12:3 izohiga qarang.

17:10 *Ashera* — 13:6 izohiga qarang.

17:12 *Egamiz…aytgani…* — Chiqish 20:4-5 ga qarang.

17:17 *O‘g‘illarini, qizlarini qurbonlik qilib, olovda kuydirardilar…* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *O‘g‘illarini, qizlarini olovdan o‘tkazardilar…*. Butparast xalqlarga xos bo‘lgan bu jirkanch odat Xudoning nazarida o‘taketgan qabihlik edi.

17:21 *…Egamiz Dovud xonadonidan Isroilni tortib olgandan keyin…* — bu voqeaning batafsil bayoni 3 Shohlar 11:29-39 da berilgan.

17:23 *…bugungacha…* — shu kitob yozilgan vaqtga ishora (shu bobning 34, 41–oyatlarida ham bor).

17:24 *Samariya* — poytaxtning nomi bo‘lib, sobiq Isroilga, ya’ni shimoliy shohlikka nisbatan ishlatilgan.

18:2 *Abiyo* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Abi*. Uning Abiyo degan shakli 2 Solnomalar 29:1 dan olingan.

18:4 *sajdagohlar* — 12:3 izohiga qarang.

18:4 *Ashera* — 13:6 izohiga qarang.

18:4 *Muso bronzadan yasagan Naxushton nomli ilon tasviri…* — Sahroda 21:6-9 ga

qarang. *Naxushton* nomi ibroniychadagi *ilon* va *bronza* so‘zlariga ohangdosh.

18:10 *Qamalning uchinchi yilida…* — yahudiylarning yil hisobi bo‘yicha, yilning biror qismi ham bir to‘liq yil deb hisoblanishi mumkin edi.

18:11 *Ossuriya shohi* — Shalmanasarning vorisi Sargon II nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin.

18:13 *Hizqiyo hukmronligining o‘n to‘rtinchi yili* — miloddan oldingi 701 yil.

18:13 *Ossuriya shohi Sanxariv* — miloddan oldingi 705-681 yillarda Ossuriyada hukmronlik qilgan.

18:14 *Laxish shahri* — Quddusdan qariyb 35 kilometr janubi–g‘arbda joylashgan edi.

18:14 *640 pud* — ibroniycha matnda *300 talant*, taxminan 10 tonnaga to‘g‘ri keladi.

18:14 *64 pud* — ibroniycha matnda *30 talant*, taxminan 1 tonnaga to‘g‘ri keladi.

18:16 *kesaki* — eshik o‘rnatilgan chorcho‘p.

18:18 *mushovir* — lug‘aviy ma’nosi *maslahatchi*. Bu o‘rinda *xabarchi*. U shohlik ichidagi va xalq orasidagi xabarni shohga, shohning farmonlarini xalqqa yetkazib turgan.

18:22 *sajdagoh* — ibroniycha matnda *bamax*, ya’ni “tepalik”. Kan’on xudolariga topinadigan joylar *bamax* deb atalardi. Odatda bu sajdagohlar tepaliklarda joylashgan bo‘lib, u yerda Kan’on xudolarining tasvirlari va qurbonliklar keltirish uchun qurbongoh bo‘lardi. Ba’zi bir paytlarda odamlar mana shu mahalliy sajdagohlarda Egamizga sajda qilardilar.

18:22 *Axir, Hizqiyo…aytgan ekan–ku!* — Hizqiyoning qilgan ishlaridan Xudo mamnun edi (shu bobning 3-5–oyatlariga va Qonunlar 12:2-7 ga qarang). Ammo Ossuriya shohi bu so‘zlarni Yahudo xalqini va Quddus aholisini Hizqiyoga qarshi qo‘zg‘atish niyatida, Xudoga itoat qilmaslikka va ishonmaslikka undash maqsadida aytgan edi (shu bobning 28-35–oyatlariga qarang).

18:26 *oramiycha* — oramiy tili o‘sha davrda tijoratda va xalqaro diplomatik doiralarda ishlatilgan.

18:34 *Xomat bilan Arpad shaharlari* — hozirgi Suriyada joylashgan.

18:34 *…Sefarvayimning, Xana va Ivvaxning…* — bu shaharlar qayerda joylashgani ma’lum emas.

18:34 *Samariya* — Isroilning, ya’ni shimoliy shohlikning poytaxti bo‘lib, Ossuriya tomonidan bosib olingan.

19:1 *…qayg‘udan liboslarini yirtdi. Qanorga o‘ranib…* — qanor dag‘al qoramtir mato bo‘lib, echki yoki tuya junidan to‘qilgan. Kiyimlarni yirtish va qanorga o‘ranib olish umidsizlikni va qayg‘uli holatni ifodalaydi. Ko‘pincha bu harakat Xudodan kechirim so‘rab ibodat qilish va Undan madad tilash bilan birgalikda amalga oshirilgan.

19:8 *Laxish shahri* — Quddusdan qariyb 35 kilometr janubi–g‘arbda joylashgan edi.

19:9-10 *Habashiston* — ibroniycha matnda *Kush*. Bu joy Misrdan janubda bo‘lib, hozirgi Sudan va Efiopiya mamlakatlarining bir qismini o‘z ichiga olgan edi.

19:15 *ikki karub* — qanotli samoviy mavjudotlarning haykallari. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi KARUB, KARUBLAR so‘ziga qarang.

19:21 *Bokira qiz* — shahar yoki yurt ahliga nisbatan qo‘llangan she’riy usul.

19:21 *Sion* — Eski Ahddagi she’riy parchalarda va payg‘ambarlar bitiklarida Sion so‘zi ko‘pincha Quddus shahriga yoki Xudoning xalqiga nisbatan ishlatilgan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi SION so‘ziga qarang.

19:26 *Tomlarda o‘sgan maysalar* — qadimgi Isroilda odatda uylarning tomlari tuproqdan bo‘lib, shibbalangan. Ba’zan tomlarda maysalar o‘sib chiqar, lekin quyosh va garmsel ta’sirida tez qurib qolar edi.

19:28 *Endi men burningdan halqamni, Og‘zingdan suvlig‘imni o‘tkazaman* — Ossuriyaliklar asirlarga shunday munosabatda bo‘lishar edi.

19:32 *...shahar devoriga qiyalatib tuproq uydirmaydi* — qadimgi davrlarda dushmanlar devor bilan o‘ralgan shaharga hujum qilayotganlarida, ko‘pincha devorga qiyalatib tuproq uyganlar. Shu yo‘l bilan ular shaharni himoya qilayotgan xalqqa hujum qilish uchun devorni buzishga yoki oshib o‘tishga qulay imkoniyat yaratganlar.

19:36 *Naynavo* — Nineviya nomi bilan ham ma’lum.

19:37 *Ararat yurti* — keyinchalik Armaniston tarkibiga kirgan. Hozirda esa Turkiyaning bir qismini tashkil qiladi.

19:37 *...Isarxaddo‘n shoh bo‘ldi* — miloddan oldingi 681-669 yillarda Ossuriyada hukmronlik qilgan.

20:9 *Oxozning zinapoyasi* — arxeologik topilmalarga ko‘ra, bu oyatdagi zinapoyalar vaqtni ko‘rsatadigan maxsus qurilma sifatida xizmat qilar edi.

20:12 *Marduxbaladon* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Barduxbaladon*. Marduxbaladon miloddan oldingi 722-710 va 704-703 yillarda Bobilda hukmronlik qilgan.

20:20 *quvur* — bu quvur 520 metr uzunlikda bo‘lib, qoyani o‘yib qilingan edi. Suv quvur orqali shahar devori tashqarisidagi Gixo‘n soyligidan shahar ichidagi Siloam hovuziga kelib tushar edi. 2 Solnomalar 32:2-4, 30 ga qarang.

21:3 *sajdagohlar* — 12:3 izohiga qarang.

21:3 *Ashera* — 13:6 izohiga qarang.

21:6 *O‘g‘lini qurbonlik qilib, olovda kuydirdi...* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *O‘g‘lini olovdan o‘tkazdi*.... Butparast xalqlarga xos bo‘lgan bu jirkanch odat Xudoning nazarida o‘taketgan qabihlik edi.

21:7 *...Egamiz bu uy to‘g‘risida...shunday degan edi...* — 3 Shohlar 9:3-5 ga qarang.

21:11 *Amor xalqlari* — bu o‘rinda umumiy nom bo‘lib, bu nom ostida Isroil xalqi Kan’on yurtini egallamasdan oldin o‘sha yerlarda yashagan jamiki xalqlar nazarda tutilgan.

21:13 *Samariyaga qarshi ishlatgan o‘lchov ipi...Axabning xonadoniga qarshi ishlatgan shoqul...* — o‘lchov ipi va shoqul bu o‘rinda Xudoning adolatli hukmini bildiradigan ramz sifatida ishlatilgan. Xudo Samariyaga qarshi chiqargan hukm haqida shu kitobning 17:5-23–oyatlarida, Axab va uning xonadoniga qarshi chiqargan hukm haqida esa 3 Shohlar 22:1-38 da va shu kitobning 10:1-11, 17–oyatlarida yozilgan. Shoqul — binokorlikda devor, ustun va shu kabilarning vertikal holatini aniqlash uchun ishlatiladigan, bir uchiga og‘irlik bog‘langan ipdan iborat asbob.

22:17 *…o‘z qo‘llari bilan yasagan butlari tufayli…* — yoki *…barcha qilmishlari tufayli….*

23:2 *Tavrot kitobi* — ibroniycha matnda *Ahd kitobi*, Tavrot kitobining yana bir nomi (22:8, 11 ga qarang).

23:4 *Ashera* — 13:6 izohiga qarang.

23:4 *Qidron soyligi* — Quddus shahridan sharqda joylashgan. Soylik — ikki adir oralig‘idagi pastlik. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi SOYLIK so‘ziga qarang.

23:5 *sajdagohlar* — 12:3 izohiga qarang.

23:7 *Fohishlar* — o‘sha paytlarda Kan’ondagi butparast xalqlar o‘z sajdagohlarida diniy vazifalardan birini fahsh orqali bajarardilar. Butparast xalqlarning udumlariga ko‘ra, odamlar fohishalar va fohishlar bilan jinsiy aloqa qilish orqali o‘z xudolariga topinardilar, xudolaridan farovonlik ato qilishni so‘rardilar. Lekin Egamiz Isroil xalqiga bu yo‘l bilan sajda qilishni qat’iyan man etgan (Qonunlar 23:17-18 ga qarang).

23:10 *…o‘g‘lini yoki qizini Mo‘laxga qurbonlik qilmasin, olovda kuydirmasin…* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *…o‘g‘lini yoki qizini Mo‘laxga olovdan o‘tkazmasin*…. Butparast xalqlarga xos bo‘lgan bu jirkanch odat Xudoning nazarida o‘taketgan qabihlik edi.

23:10 *Xinnum soyligi* — Quddus shahridan janubda joylashgan.

23:13 *…Makruh tog‘ining janubida…* — Zaytun tog‘ining janubidagi tepalikka ishora. U yerda Sulaymon umrining oxirida butparast xotinlari ta’sirida Kan’on xalqlarining xudolari uchun sajdagohlar barpo qilgandi (3 Shohlar 11:1-7 ga qarang).

23:13 *Mo‘lax* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Milkom*.

23:14 *…ularning o‘rnini inson suyaklari bilan to‘ldirdi…* — shu tufayli o‘sha joy harom hisoblanib, sajda uchun yaroqsiz edi.

23:15 *…Yeribom Baytilda o‘rnatgan sajdagoh…qurbongoh…* — bu voqeaning batafsil bayoni 3 Shohlar 12:32-33 da berilgan.

23:16 *…Egamizning so‘ziga binoan…bu haqda payg‘ambar qurbongohga nido qilgan edi* — Egamiz aytgan so‘zlarning batafsil bayoni 3 Shohlar 13:1-3 da berilgan.

23:18 *…Samariyadan kelgan payg‘ambar…* — bu payg‘ambar haqida 3 Shohlar 13:11-32 da batafsil yozilgan. Payg‘ambar Baytil shahrining o‘zidan edi. Baytil shahri Isroilda, ya’ni shimoliy shohlikda joylashgan. O‘sha davrda Isroil Samariya deb yuritilar edi.

23:21 *Tavrot kitobi* — ibroniycha matnda *Ahd kitobi*, Tavrot kitobining yana bir nomi (22:8, 11 ga qarang).

23:24 *xonaki sanamlar* — ibroniycha matnda *terafim*. Odamlar bu sanamlardan fol ochishda foydalangan bo‘lsalar kerak.

23:27 *…Men o‘sha yerda ulug‘lanaman, deb aytgan uyim…* — Egamiz aytgan so‘zlarning batafsil bayoni 3 Shohlar 8:16-29 da berilgan.

23:29 *Magido‘* — Jalila ko‘lidan qariyb 40 kilometr janubi–g‘arbda joylashgan.

23:29 *…Misr fir’avni Nexo…Yo‘shiyoni o‘ldirdi* — shu paytda Misr fir’avni Nexo (miloddan oldingi 609-595 yillarda hukmronlik qilgan) Ossuriyaliklar tomonida edi.

Nexo Ossuriya shohining qo‘li ostidagi yerlarni saqlab qolishda unga yordam bermoqchi bo‘lib, Bobil lashkariga qarshi urush qilish uchun shimol tomon yo‘l olgandi. Yahudo shohi Yo‘shiyo esa Misr va Ossuriyaning bu ittifoqidan mamnun emasdi, chunki ularning kuchayishi Yahudo shohligining osoyishtaligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin edi.

23:31 *Yeremiyo* — mashhur Yeremiyo payg‘ambar emas, uning otdoshi.

23:33 *Rivlo shahri* — bu shahar Orontes daryosi bo‘yida, hozirgi Suriya hududida joylashgan edi.

23:33 *200 pud* — ibroniycha matnda *100 talant*, taxminan 3,4 tonnaga to‘g‘ri keladi.

23:33 *2 pud* — ibroniycha matnda *bir talant*, taxminan 34 kiloga to‘g‘ri keladi.

24:1 *Bobil shohi Navuxadnazar* — miloddan oldingi 605-562 yillarda Bobilda hukmronlik qilgan.

24:2 *Bobil* — ibroniycha matnda *Xaldey*, o‘sha vaqtda Bobil yurti shu nom bilan ham atalardi.

24:7 *Misr fir’avni qaytib o‘z yurtidan tashqariga chiqmadi* — miloddan oldingi 605 yilda Karxamish shahridagi jangda Navuxadnazar Misr lashkarini mag‘lub qildi. Ammo bir necha yildan so‘ng orqaga chekinishga majbur bo‘ldi, Yohayiqim esa bundan foydalanib isyon ko‘tardi (shu bobning 1–oyatiga qarang).

24:7 *Misr chegarasidagi irmoq* — Sinay yarim orolining shimoli–sharqidagi Arish soyligi yoki Nil daryosining sharqiy irmog‘i nazarda tutilgan (yana Ibtido 15:18, Sahroda 34:5 va Yoshua 13:3, 15:4, 47 ga qarang).

24:12 *Bobil shohi hukmronligining sakkizinchi yilida…* — bu voqealar miloddan oldingi 597 yilda sodir bo‘lgan.

24:13 *Egamizning aytgani bo‘yicha…* — Egamiz aytgan bu so‘zlarning batafsil bayoni 20:16-18 da berilgan.

24:18 *Yeremiyo* — mashhur Yeremiyo payg‘ambar emas, uning otdoshi.

25:1 *Zidqiyo hukmronligining to‘qqizinchi yili o‘ninchi oyi* — miloddan oldingi 589 yilning o‘ninchi oyi. Ibroniy kalendarining Tabat oyi nazarda tutilgan. Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan dekabrning o‘rtasidan boshlanadi.

25:1 *qamal inshootlari* — qadimgi davrlarda dushmanlar devor bilan o‘ralgan shaharga hujum qilayotganlarida, ko‘pincha devor yoniga baland qurilmalar yasaganlar. Shu yo‘l bilan ular shaharni himoya qilayotgan xalqqa hujum qilish uchun devorni buzishga yoki oshib o‘tishga qulay imkoniyat yaratganlar.

25:3 *To‘rtinchi* — ibroniycha matnda bu so‘z yo‘q. To‘rtinchi so‘zi Yeremiyo 52:5-6 dan olingan.

25:3 *To‘rtinchi oy* — ibroniy kalendarining Tammuz oyi nazarda tutilgan. Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan iyunning o‘rtasidan boshlanadi. Zidqiyo shohligining o‘n birinchi yilida sodir bo‘lgan bu voqea miloddan oldingi 586 yilga to‘g‘ri keladi.

25:4 *Bobilliklar* — ibroniycha matnda *Xaldeylar*, o‘sha vaqtda Bobilliklar shu nom bilan ham atalardi (shu bobning 5, 10, 13, 24, 25, 26–oyatlarida ham bor).

25:4 *Iordan vodiysi* — ibroniycha matnda *Araba*. Araba umumiy geografik nom bo‘lib,

bu oyatda Iordan vodiysining bir qismiga, aynan O‘lik dengizning shimolidagi yerlarga nisbatan ishlatilgan.

25:6 *Rivlo shahri* — 23:33 ning birinchi izohiga qarang.

25:8 *Beshinchi oyning yettinchi kunida…o‘n to‘qqizinchi yilida…* — ibroniy kalendarining beshinchi oyi, ya’ni miloddan oldingi 586 yilning avgust oyi.

25:13 *…bronza ustunlar…aravalar…bronza hovuz…* — bu buyumlar Sulaymon hukmronlik qilgan davrda yasalgan. Mazkur buyumlarning batafsil bayoni 3 Shohlar 7:15-39 da berilgan.

25:17 *18 tirsak* — taxminan 8,1 metrga to‘g‘ri keladi.

25:17 *5 tirsak* — ibroniycha matnda *3 tirsak*. “5 tirsak” degan ibora 3 Shohlar 7:16, 2 Solnomalar 3:15, Yeremiyo 52:22 dan olingan. 5 tirsak taxminan 2,3 metrga, 3 tirsak taxminan 1,4 metrga to‘g‘ri keladi.

25:17 *anor* — qadimgi paytlarda hayot ramzi edi.

25:23 *Mispax* — Quddusdan qariyb 8 kilometr shimolda joylashgan shahar.

25:25 *O‘sha yilning yettinchi oyi* — miloddan oldingi 586 yilning yettinchi oyi. Ibroniy kalendarining Tishri oyi nazarda tutilgan (Tishri oyi Itanim oyi deb ham ataladi). Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan sentabrning o‘rtasidan boshlanadi.

25:27 *…Bobil taxtiga Evilmardux o‘tirdi* — u Navuxadnazarning o‘g‘li bo‘lib, miloddan oldingi 562-560 yillarda Bobilda hukmronlik qilgan.

25:27 *o‘sha yilning o‘n ikkinchi oyi yigirma yettinchi kuni* — ibroniy kalendarining o‘n ikkinchi oyi, ya’ni miloddan oldingi 561 yilning aprel oyi.

SOLNOMALAR
(BIRINCHI KITOB)

Kirish

“Solnomalar (birinchi kitob)” va “Solnomalar (ikkinchi kitob)”larda Isroil xalqining tarixi bayon qilinadi. Garchi ikkala kitobda “Shohlar” kitoblaridagi ko‘p voqealar takrorlansa ham, Isroil tarixi “Shohlar” kitoblaridagiga qaraganda bir oz boshqacharoq nuqtayi nazardan yoritiladi. “Shohlar” kitoblari Isroil xalqi Bobilga surgun qilingan davrda yozilgan bo‘lsa, “Solnomalar” kitoblari xalq surgundan ona yurtiga qaytgandan keyin yozilgan edi. Shu sababdan “Solnomalar” kitoblarida nasabnomalarga, shoh Dovud va shoh Sulaymonning hukmronligi davriga, shuningdek, Ma’badning qurilishi bilan bog‘liq bo‘lgan voqealarga alohida urg‘u va e’tibor berilgan. Shu orqali muallif surgundan qaytib kelgan xalqni o‘z o‘tmishi bilan bog‘lab turgan rishtalarni ko‘rsatmoqchi bo‘ladi, Xudoning qilayotgan ishlarini madh etadi.

“Solnomalar (birinchi kitob)” va “Solnomalar (ikkinchi kitob)”ning asl nusxasi bitta ibroniycha kitob bo‘lib, ikkala qismni bitta o‘ramga joylash uzunlik qilgani uchun, kitob ikki qismga — “Solnomalar (birinchi kitob)” va “Solnomalar (ikkinchi kitob)”ga bo‘lingan.

“Solnomalar (birinchi kitob)”da shoh Dovud bosh qahramondir. U Quddusni Xudoga sajda qilish markaziga aylantiradi. Xudoga to‘g‘ri yo‘llar bilan sajda qilishni o‘z xalqiga o‘rgatadi. Ma’badni Dovudning o‘g‘li Sulaymon qurgan bo‘lsa–da, Dovud Ma’badning asoschisi sifatida shuhrat qozonadi. U Xudoga chin ko‘ngildan sajda qiladigan va itoat etadigan inson sifatida namuna qilib ko‘rsatiladi.

“Solnomalar (birinchi kitob)”ning ko‘p qismida ro‘yxat berilgan bo‘lib, bu ro‘yxatga Odam Atodan shoh Shoul davrigacha bo‘lgan nasllar kiritilgan (1-9–boblar). Shoulning o‘limi to‘g‘risidagi xabardan keyin (10–bob), shoh Dovudga urg‘u beriladi (11-29–boblar). Dovud qay tarzda shoh bo‘lgani va Quddusni poytaxt qilgani hikoya qilinadi. Dovudning sipohlari va lashkarboshilari to‘g‘risidagi ma’lumot beriladi. So‘ng Dovud muqaddas Ahd sandig‘ini yangi joyga — Quddusga ko‘chirgani haqida so‘z yuritiladi. Kitobning oxirida Dovud Xudoning Ma’badini qurish uchun qanday tayyorgarlik ko‘rgani va o‘g‘li Sulaymonga sajda marosimlariga oid ko‘rsatmalar bergani to‘g‘risida bayon qilinadi.

1–BOB

Odam Atodan Ibrohimgacha bo‘lgan nasllar

Odam Atodan Nuh o‘g‘illarigacha bo‘lgan nasllar

[1] Odam Atodan Shis tug‘ildi, Shisning nasli quyidagilardir: Eno‘sh, [2] Xenan, Maxaliyol, Yored, [3] Xano‘x*, Matushaloh, Lamak [4] va Nuh.

Nuhning Som, Xom va Yofas degan uch o‘g‘li bor edi*.

Yofasdan kelib chiqqan xalqlar

[5] Yofas nasli: Go‘mer, Mago‘g, Moday, Yovon, Tuval, Meshex, Tiros va ulardan kelib

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

chiqqan xalqlar.

6 Go‘mer nasli: Ashkanoz, Rifat*, To‘xarmo va ulardan kelib chiqqan xalqlar.

7 Yovon nasli: Elishox, Tarshish, Kit, Ro‘don va ulardan kelib chiqqan xalqlar.

Xomdan kelib chiqqan xalqlar

8 Xom nasli: Kush*, Mizra*, Fut, Kan’on va ulardan kelib chiqqan xalqlar.

9 Kush nasli: Savo, Xavila, Sabto, Ramo, Sabtaxo va ulardan kelib chiqqan xalqlar.

Ramo nasli: Shava, Dedon va ulardan kelib chiqqan xalqlar.

10 Kushning naslida yana Nimro‘d degani ham bor edi. Nimro‘d yer yuzidagi birinchi buyuk jangchi edi.

11 Mizra nasli: Lud, Onom, Laxov, Naftux, 12 Patro‘s, Kasluv, Xafto‘r va ulardan kelib chiqqan xalqlar. Kasluvdan Filist xalqi kelib chiqdi*.

13 Kan’on nasli: Kan’onning to‘ng‘ich o‘g‘li Sidon, Xet va ulardan kelib chiqqan xalqlar. 14 Kan’ondan Yobus, Amor, Girgosh, 15 Xiv, Oruq, Sin, 16 Arvod, Zamar va Xomat xalqlari ham kelib chiqdi.

Somdan kelib chiqqan xalqlar

17 Som nasli: Elam, Oshur, Arpaxshod, Lud, Oram va ulardan kelib chiqqan xalqlar.

Oram nasli: Uz, Xul, Geter, Meshex* va ulardan kelib chiqqan xalqlar.

18 Arpaxshodning Shilax degan o‘g‘li bor edi. Shilaxning Ibir* degan o‘g‘li bor edi.

19 Ibir ikki o‘g‘il ko‘rdi: birinchisining ismini Palax qo‘ydi, chunki uning davrida dunyo bo‘linib ketdi*. Ikkinchisining ismi Yoxton edi.

20 Yoxtonning nasli: Elmo‘dod, Shalaf, Xazormavat, Yorax, 21 Hadoram, Uzol, Dikla, 22 Obal*, Abumayl, Shava, 23 Ofir, Xavila, Yo‘vov va ulardan kelib chiqqan xalqlar. Yoxtonning nasli mana shular edi.

24 Somdan Ibrohimgacha bo‘lgan nasllar quyidagicha edi: Som, Arpaxshod, Shilax, 25 Ibir, Palax, Ravu, 26 Sarug‘, Naxo‘r, Terah, 27 Ibrom, ya’ni Ibrohim.

Ibrohimning nasli

28 Ibrohimning o‘g‘illari Is’hoq va Ismoildir. 29 Ularning nasl–nasabi quyidagichadir:

Ismoilning to‘ng‘ich o‘g‘li — Navayot, keyingilari — Kedar, Adbal, Mivsom,
30 Mishmo, Dumax, Masso, Hadad, Temo, 31 Yatur, Nofish va Kedemax. Mana shular Ismoilning o‘g‘illaridir.

32 Cho‘ri* Xaturo Ibrohimga tug‘ib bergan o‘g‘illar — Zimron, Yoxshon, Midon, Midiyon, Yishboq va Shuvax. Yoxshonning Shava va Dedon degan o‘g‘illari bor edi. 33 Midiyonning Efax, Ifar, Xano‘x, Avido va Eldax degan o‘g‘illari bor edi. Mana shularning hammasi Xaturoning avlodlaridir.

34 Ibrohim o‘g‘li Is’hoqning Esov bilan Yoqub* degan o‘g‘illari bor edi.

Esovning nasli

35 Esovning o‘g‘illari — Elifaz, Ruvel, Youish, Yalom va Ko‘rax.

36 Elifazning o‘g‘illari — Temon, O‘mar, Zafo‘*, Gatam, Xanaz va Timna ismli cho‘risi tuqqan o‘g‘li Omolek*.

37 Ruvelning o‘g‘illari — Naxat, Zerax, Shammox va Mizzo.

Edomning tub aholisi

38 Seir* o‘g‘illari — Lo‘ton, Sho‘val, Zibo‘n, Anah, Dishon, Ezer va Dishan.

39 Loʻtonning oʻgʻillari — Xoʻri bilan Xoʻmam. Loʻtonning Timna degan singlisi ham
bor edi.
40 Shoʻvalning oʻgʻillari — Eliyon, Monaxat, Ebal, Shafo* va Oʻnam.
Zibo'nning oʻgʻillari — Oyo bilan Anah.
41 Anahning oʻgʻli — Dishon.
Dishonning oʻgʻillari — Xamdon*, Eshbon, Yitron va Xeron.
42 Ezerning oʻgʻillari — Bilxan, Zavon va Oqon*.
Dishanning oʻgʻillari — Uz va Oron.

Edom shohlari va yoʻlboshchilari

43 Hali Isroilda shohlar boʻlmasdan oldin ham, Edomda shohlar hukmronlik qilgan
edi. Bu shohlar quyidagilardir:

Bavoʻr oʻgʻli Belax. U Dinxaba shahridan edi.
44 Belax vafot etgach, uning oʻrniga Zerax oʻgʻli Yoʻvov shoh boʻldi. U Bozrax
shahridan edi.
45 Yoʻvov vafot etgandan keyin, uning oʻrniga Xushom shoh boʻldi. U Temon
yurtidan edi.
46 Xushom vafot etgach, uning oʻrniga Badad oʻgʻli Hadad shoh boʻldi. U Obit
shahridan edi. Hadad Moʻab yurtida Midiyon lashkarini qirib tashlagan edi.
47 Hadad vafot etgandan keyin, uning oʻrniga Samlo shoh boʻldi. U Masrixo
shahridan edi.
48 Samlo vafot etgandan keyin, uning oʻrniga Shovul shoh boʻldi. U Furot
daryosi* boʻyidagi Rexoboʻt shahridan edi.
49 Shovul vafot etgandan keyin, uning oʻrniga Axbor oʻgʻli Baalxanon shoh
boʻldi.
50 Baalxanon vafot etgandan keyin, uning oʻrniga Hadad shoh boʻldi. U Pogʻu*
shahridan edi. Hadadning xotini Maxitaval edi, Maxitavalning otasi — Matrid,
bobosi Mezaxab edi. 51 Oxiri Hadad ham olamdan oʻtdi.

Edom yoʻlboshchilari quyidagilar edi: Timno, Elvo*, Yetet, 52 Oxolibom, Elox, Pinon,
53 Xanaz, Temon, Mivzar, 54 Maxdiyol va Irom. Edom yoʻlboshchilari ana shulardan
iboratdir.

2–BOB

Yoqubning nasli

1 Yoqubning* oʻgʻillari quyidagilardir: Ruben, Shimoʻn, Levi, Yahudo, Issaxor,
Zabulun, 2 Dan, Yusuf, Benyamin, Naftali, Gad va Osher.

Yahudoning nasli

3 Yahudoning Gʻur, Oʻnan va Shelo degan oʻgʻillari bor edi. Bu uchala oʻgʻilni unga
Kan'onlik Botshuva* tugʻib bergandi. Yahudoning toʻngʻich oʻgʻli Gʻur Egamizning oldida
qabih ishlar qilgani uchun, Egamiz uning jonini oldi. 4 Yahudoning kelini Tamara ham
Yahudoga Paraz va Zerax degan oʻgʻillarni tugʻib berdi. Yahudoning hammasi boʻlib besh
oʻgʻli bor edi.
5 Parazdan Xazron va Xomul ismli ikki oʻgʻil tugʻildi.

6 Zeraxning beshta o‘g‘li bo‘lib, ularning ismlari Zimri, Etxan, Xaman, Qolko‘l va
Dardax* edi. 7 Zerax avlodidan bo‘lgan Karmi ismli bir odamning Oxun* degan o‘g‘li bor
edi. Oxun Egamizga bag‘ishlangan narsalarning bir nechtasini olib, Isroil xalqiga kulfat
keltirgandi.
8 Etxanning o‘g‘li Ozariyo edi.

Yahudoning nabirasi Xazrondan Dovudgacha bo‘lgan nasllar

9 Xazronning uchta o‘g‘li bo‘lib, ismlari Yaraxmal, Ram va Xolib* edi.
10 Ramdan Ominadav tug‘ildi, Ominadav Yahudo yo‘lboshchisi Naxsho‘nning otasi
edi. 11 Naxsho‘ndan Salmo‘n tug‘ildi, Salmo‘ndan Bo‘az tug‘ildi, 12 Bo‘azdan Obid tug‘ildi
va Obiddan Essay tug‘ildi.
13 Essayning yetti o‘g‘li bo‘lib, to‘ng‘ichi — Eliyob, ikkinchisi — Abunadav, uchinchisi
— Shimo, 14 to‘rtinchisi — Natanil, beshinchisi — Radday, 15 oltinchisi — Ozim,
yettinchisi Dovud edi*. 16 Ularning Zeruya va Obigayl degan singillari bor edi.
Zeruyaning uchta o‘g‘li bo‘lib, ularning ismlari Abushay, Yo‘ab va Osoyil edi. 17 Obigayl
Ismoil qavmidan bo‘lgan Eter bilan turmush qurib, Emosani tug‘di.

Xazronning nasli

18 Xazron o‘g‘li Xolibning Oziba va Yariyo‘t degan xotinlari bor edi. Oziba Xolibga uch
o‘g‘il: Yesher, Sho‘vav va Ardunni tug‘ib berdi. 19 Oziba olamdan o‘tgach, Xolib Efrataga
uylandi. Efrata unga Xurni tug‘ib berdi. 20 Xurdan Uri tug‘ildi, Uridan Bazalil tug‘ildi.
21 Xazron oltmish yoshga kirganda Moxirning qizi — Giladning singlisiga uylandi. U
Xazronga Saxuv ismli o‘g‘il tug‘ib berdi. 22 Saxuvdan Yovir tug‘ildi. U Giladdagi yigirma
uchta shahar ustidan hukmronlik qilardi. 23 Keyinchalik Gashur va Oram xalqlari Yovir
shaharlarini*, shuningdek, Qanot shahri va atrofidagi oltmishta qishloqni qo‘lga
kiritishdi. Bu yerlarda yashayotgan xalq Giladning otasi Moxirning urug‘idan edi.
24 Xazron vafot etgandan keyin, o‘g‘li Xolib otasining beva qolgan Efrata ismli
xotiniga uylangan edi. Ular Ashxur ismli o‘g‘il ko‘rdilar*. Ashxur Taxuva shahriga asos
soldi*.

Xazron o‘g‘li Yaraxmalning nasli

25 Xazronning to‘ng‘ich o‘g‘li Yaraxmaldan bino bo‘lgan o‘g‘illar quyidagilardir:
to‘ng‘ich o‘g‘li Ram, so‘ngra Bunax, Oren, Ozim va Oxiyodir. 26 Yaraxmalning Otara ismli
boshqa xotini ham bor edi. Otara O‘namni tug‘di.
27 Yaraxmalning to‘ng‘ich o‘g‘li Ramdan Maz, Yomin va Exer bino bo‘ldi.
28 O‘namning Shammay va Yodo degan o‘g‘illari bor edi.
Shammay Nadov va Abushur ismli o‘g‘illar ko‘rdi.
29 Abushurning Abuhayil degan xotini bo‘lib, ular Axbon va Mo‘lid degan o‘g‘illar
ko‘rdi.
30 Nadovdan Saled va Opayim degan o‘g‘illar bino bo‘ldi. Saled befarzand o‘tib ketdi.
31 Opayim — Yishining otasi, Yishi — Shashonning otasi, Shashon Oxlayning* otasi
edi.
32 Shammayning ukasi Yodoning Eter va Yo‘natan ismli ikkita o‘g‘li bor edi. Eter
befarzand o‘tib ketdi.
33 Yo‘natanning Palaf va Zozo ismli ikkita o‘g‘li bor edi.
Mana shularning hammasi Yaraxmalning nasli edi.

34 Shashonning o‘g‘li bo‘lmay, faqat qizlari bor edi, xolos. Shashonning Yarxo ismli bir
Misrlik quli ham bor edi. 35 Shashon qizini o‘zining quli Yarxoga uzatdi. Ular o‘g‘il
ko‘rishdi va ismini Attay qo‘yishdi.
36 Attaydan Natan tug‘ildi, Natandan Zabad tug‘ildi, 37 Zabaddan Eflol tug‘ildi,
Efloldan Obid tug‘ildi, 38 Obiddan Yohu tug‘ildi, Yohudan Ozariyo tug‘ildi, 39 Ozariyodan
Xalez tug‘ildi, Xalezdan Elasax tug‘ildi, 40 Elasaxdan Sismay tug‘ildi, Sismaydan Shallum
tug‘ildi, 41 Shallumdan Yoxamiyo tug‘ildi, Yoxamiyodan Elishama tug‘ildi.

Xazron o‘g‘li Xolibning nasli

42 Yaraxmalning ukasi Xolib ikki o‘g‘il ko‘rdi, to‘ng‘ichining ismi Mesho va
kenjasining ismi Morisho edi. Meshodan Zif tug‘ildi, Morishodan Xevron tug‘ildi.
43 Xevron Ko‘rax, Tappux, Rahem va Shema ismli o‘g‘illar ko‘rdi. 44 Shemadan Raxam
tug‘ildi, Raxamdan Yorixim tug‘ildi. Shemaning akasi Rahem Shammay ismli o‘g‘il ko‘rdi.
45 Shammaydan Moyun tug‘ildi. Moyundan Baytzur tug‘ildi.
46 Xolibning Efax ismli cho‘risi* unga Xoronni, Mo‘zoni va Gazezni tug‘ib berdi. Xoron
ham Gazez ismli bir o‘g‘il ko‘rdi. 47 Efaxning otasi Yohdoyning Raxem, Yo‘tom, Geshon,
Palat va Shaf degan o‘g‘illari ham bor edi.
48 Xolibning Maxo ismli boshqa bir cho‘risi* unga Shabar va Tirxano ismli o‘g‘illar
tug‘ib berdi. 49 Keyinroq ular Shaf va Shavo ismli yana ikki o‘g‘il ko‘rishdi. Shaf
Madmanno shahriga, Shavo esa Maxbinax va Giviyo shaharlariga asos soldi*. Xolibning
Axsa ismli bir qizi ham bor edi.
50 Mana shularning hammasi Xolibning nasli edi.

Xolib o‘g‘li Xurning nasli

Efrataning Xolibdan tug‘ilgan to‘ng‘ich o‘g‘li Xur uch o‘g‘il ko‘rdi. Birinchisining ismi
Sho‘val bo‘lib, u Xirat–Yo‘rim shahriga asos soldi. 51 Ikkinchisining ismi Salmo bo‘lib, u
Baytlahm shahriga asos soldi. Uchinchisining ismi Xoref bo‘lib, u Bayt–Gader shahriga
asos soldi.
52 Xirat–Yo‘rimning asoschisi Sho‘valdan Horu xalqi va Monaxat shahrining yarim
aholisi bino bo‘ldi. 53 Xirat–Yo‘rim aholisi Yitar urug‘i, Fut urug‘i, Shumot urug‘i va
Mishroy urug‘laridan tashkil topgan edi. Zorox va Eshtoyo‘l shaharlarining aholisi ham
shu urug‘lardan kelib chiqqan.
54 Natufo, Otro‘t–Bayt–Yo‘ab va Zorox shaharlarining aholisi hamda Monaxat
shahrining yarim aholisi Baytlahmning asoschisi Salmo naslidan tashkil topgan edi.
55 Yabiz shahrida istiqomat qilgan kotiblarning urug‘lari* ham Salmo naslidan kelib
chiqqan bo‘lib, ular Tirotliklar, Shimatliklar va Suxotliklar degan nom bilan yuritilardi.
Bular Xayin xalqidan bo‘lgan Xammat ismli bir odamning avlodlari edilar. Xammat
Raxav urug‘ining bobokaloni edi*.

3–BOB

Shoh Dovudning nasli

1 Dovud Xevronda turgan paytda tug‘ilgan o‘g‘illari mana shular edi:

to‘ng‘ichi — Omno‘n. Omno‘nning onasi Yizrillik Oxinavam edi.
Ikkinchisi — Doniyor. Doniyorning onasi Karmillik Obigayl edi.

[2] Uchinchisi — Absalom. Absalomning onasi Gashur shohi Talmayning qizi Maxo edi.
To‘rtinchisi — Odoniyo. Odoniyoning onasi Xaggit edi.
[3] Beshinchisi — Shafatiyo. Shafatiyoning onasi Obida edi.
Oltinchisi — Yitrom. Yitromning onasi Eglax edi.

[4] Dovudning bu olti o‘g‘li Xevronda tug‘ilgan edi.
Dovud bu yerda yetti yilu olti oy, Quddusda esa o‘ttiz uch yil hukmronlik qildi.
[5] Dovudning Quddusda tug‘ilgan o‘g‘illari esa quyidagilardir: Shammuva*, Sho‘vav, Natan va Sulaymon. Bu to‘rtala o‘g‘ilni Dovudga Omiyolning qizi Botsheva* tug‘ib bergan. [6] Dovudning yana to‘qqizta o‘g‘li bo‘lib, o‘g‘illarining ismlari quyidagicha edi: Yibxar, Elishuva*, Elfalat*, [7] No‘gax, Nafax, Yofiya, [8] Elishama, Elyodax va Elifalet.
[9] Bu o‘g‘illaridan tashqari, Dovudga kanizaklar* ham o‘g‘illar tug‘ib bergan edi. Dovudning Tamara degan qizi ham bor edi.

Shoh Sulaymonning nasli

[10] Sulaymonning naslidan chiqqan shohlar quyidagilar edi: Raxabom, Abiyo, Oso, Yohushafat, [11] Yohuram*, Oxoziyo, Yo‘sh, [12] Emoziyo, Uzziyo*, Yo‘tom, [13] Oxoz, Hizqiyo, Manashe, [14] Omon va Yo‘shiyo.
[15] Yo‘shiyoning to‘rt o‘g‘li bor edi. To‘ng‘ichi — Yo‘xanon, ikkinchisi — Yohayiqim, uchinchisi — Zidqiyo va to‘rtinchisi Yohuxoz* edi.
[16] Yohayiqimning Yohayixin* bilan Zidqiyo degan o‘g‘illari bor edi.

Shoh Yohayixinning nasli

[17] Bobilga asir qilib olib ketilgan Yohayixinning* o‘g‘illari quyidagilardir: Shaltiyol, [18] Malkirom, Podiyo, Shenazar, Yoxamiyo, Xo‘shama va Nadaviyo.
[19] Podiyoning Zarubabel va Shimax degan o‘g‘illari bor edi.
Zarubabelning Mashullom, Xanoniyo degan o‘g‘illari va Shalumit degan bir qizi bor edi. [20] Zarubabelning yana Xashuva, Oxil, Barxiyo, Xasadiyo va Yoshaxesed ismli beshta o‘g‘li bor edi.
[21] Xanoniyoning o‘g‘illari Pilatiyo va Yeshayo edi. Yeshayodan Rafiyo tug‘ildi, Rafiyodan — Arnan, Arnandan — Obodiyo, Obodiyodan Shaxaniyo tug‘ildi.
[22] Shaxaniyoning nasli quyidagicha edi: uning Shamayo ismli bir o‘g‘li va Xattush, Yixal, Boriyox, Nariyo va Shofot ismli beshta nabirasi bor edi. Hammasi bo‘lib oltita edilar.
[23] Nariyoning Eliyo‘nay, Xizqiyo va Ozrikom degan uch o‘g‘li bor edi.
[24] Eliyo‘nayning Xo‘daviyo, Eliashab, Paliyo, Oqquv, Yo‘xanon, Daloyo va Onanax degan yettita o‘g‘li bor edi.

4–BOB

Yahudoning nasli

[1] Yahudoning Paraz, Xazron, Karmi, Xur va Sho‘val degan o‘g‘illari bor edi.
[2] Sho‘val o‘g‘li Rayodan Yaxat tug‘ildi. Yaxatdan Oximay va Lo‘had tug‘ildilar. Bular Zorox shahri aholisining ajdodlari edilar.
[3-4] Xolib o‘g‘li Xurning avlodlari Baytlahm shahriga asos soldilar*. Xur onasi

Efrataning to‘ng‘ich o‘g‘li edi. Xurning Etom, Panuval va Eyzar degan o‘g‘illari bor edi.
Etomning Yizril, Yishmo va Yidbosh ismli uch o‘g‘li va Xazaleypo‘n ismli bir qizi bor edi.
Panuval Gado‘r shahriga, Eyzar esa Xusha shahriga asos soldi.
5 Taxuva shahriga asos solgan* Ashxurning Xela va Naro ismli ikkita xotini bor edi.
6 Naro Ashxurga to‘rtta o‘g‘il tug‘ib berdi. Ularning ismlari Oxizam, Xafer, Tamanax va
Axashtori edi. 7 Xotini Xela esa Zaret, Izxor va Etnan ismli uch o‘g‘ilni tug‘ib berdi.
8 Kozning Onib va Zobeba degan o‘g‘illari bor edi. Koz Xarum o‘g‘li Oxarxel
urug‘larining bobokaloni edi.
9 Yabiz ismli bir odam bor edi. U birodarlariga qaraganda, baland obro‘ga ega edi.
Onasi: “Uni dard chekib tuqqanman”, deb ismini Yabiz* qo‘ygan edi. 10 Yabiz Isroil
xalqining Xudosiga shunday deb yolvordi: “Koshkiydi, Sen meni muborak qilib,
hududimni kengaytirsang. Yonimda bo‘lsang, meni dardga yo‘liqtirmay, kulfatdan
saqlasang.” Xudo uning iltijolarini bajo qildi.
11 Shuxoning akasi Xalubdan Maxir tug‘ildi. Maxirdan Eshtun tug‘ildi. 12 Eshtundan
Baytrafa, Posiyox va Taxinno tug‘ildilar. Taxinno Naxosh shahriga asos soldi*. Bularning
avlodlari Raxada istiqomat qilardilar.
13 Xanazning O‘tniyol bilan Sarayo degan ikki o‘g‘li bor edi. O‘tniyolning ham Xatat
bilan Miyono‘tay* degan ikki o‘g‘li bor edi. 14 Miyono‘taydan O‘frax tug‘ildi. Sarayodan
Yo‘ab tug‘ildi. Yo‘ab Gay–Xaroshim* shahriga asos soldi. U yerda yashagan odamlarning
hammasi hunarmand edi.
15 Yafunax o‘g‘li Xolib uch o‘g‘il ko‘rdi. Ularning ismlari Iru, Elox va Nayam edi.
Eloxdan Xanaz tug‘ildi.
16 Yoxalilning Zif, Zifo, Tirayo va Osoriyol degan o‘g‘illari bor edi.
17-18 Ezraxning Eter, Mirod, Ifar va Yolun degan o‘g‘illari bor edi. Mirod fir’avnning
qizi Bitiyoga uylandi, ular Maryam ismli bir qiz hamda Shammay va Yishbox ismli ikki
o‘g‘il ko‘rishdi. Yishbox Eshtamo‘va shahriga asos soldi. Mirod Yahudo qabilasidan
o‘ziga yana bir xotin oldi. Bu xotini unga Yored, Xaber va Yohutal ismli uch o‘g‘il tug‘ib
berdi. Yored Gado‘r shahriga, Xaber So‘xu shahriga va Yohutal Zono‘vax shahriga asos
soldilar.
19 Xo‘diyo Naxamning singlisiga uylandi. Ulardan Keylaxda istiqomat qilgan Xarm
urug‘i va Eshtamo‘vada istiqomat qilgan Maxo urug‘lari kelib chiqdi*.
20 Shimonning Omno‘n, Rina, Banxanon va Tilo‘n degan o‘g‘illari bor edi.
Yishining Zo‘xit va Banzo‘xit degan o‘g‘illari bor edi.

Sheloning nasli

21 Yahudoning Shelo ismli o‘g‘li ham bor edi. Sheloning nasli quyidagilardan tashkil
topgan edi: Lexa shahrini qurgan G‘ur, Morisho shahrini qurgan Lado, Bayt–Ashbiya
shahrida yashagan zig‘ir to‘quvchilarning urug‘i, 22 Yo‘xim va Xozeba shahrining aholisi.
Yo‘sh va Soraf ham Sheloning naslidan kelib chiqqan edilar. Ular Mo‘ablik ayollarga
uylanib, Baytlahm shahriga o‘rnashib olgan edilar*. Bu ma’lumotlar qadimgi
yozuvlardan olingan. 23 Shu naslga tegishli odamlar shoh saroyida kulollar sifatida
xizmat qilib, Natayim va Gadera shaharlarida yashashardi.

Shimo‘nning nasli

24 Shimo‘nning Yamuvol*, Yomin, Yoriv, Zo‘xar* va Shovul ismli o‘g‘illari bor edi.
25 Shovulning Shallum degan o‘g‘li, Mivsom degan nabirasi va Mishmo degan

chevarasi bor edi.
26 Mishmoning Xammuvol degan o‘g‘li, Zakkur ismli nabirasi va Shimax degan
chevarasi bor edi.
27 Shimax o‘n olti o‘g‘il va olti qiz ko‘rdi. Lekin aka–ukalarining farzandlari kam
bo‘lgani uchun Shimo‘n qabilasi, Yahudo qabilasi kabi, ko‘paymadi.
28 Shimo‘n nasli Bersheba, Mo‘lodax, Xazor–Shuvol, 29 Bilxax, Ezam, To‘lad, 30 Batuval,
Xo‘rmax, Zixlax, 31 Bayt–Markobot, Xazor–Susum, Bayt–Biriy va Sharayim shaharlarida
istiqomat qilardilar. Dovud shoh bo‘lgunga qadar, mana shu shaharlar Shimo‘n nasliga
qarashli edi. 32 Ular yana Etom, Oyin, Rimmon, To‘xan va Oshon nomli beshta shaharda
ham istiqomat qilardilar. 33 Janubi–g‘arbdagi Baalat* shahrigacha cho‘zilgan bu
shaharlar va ularning atrofidagi hamma qishloqlar Shimo‘n nasliga qarashli edi. Ular
shu joylarda yashab, o‘z nasabnomalari haqidagi ma’lumotlarni yozib qo‘ygan edilar.
34-38 Quyidagilar Shimo‘n naslining urug‘boshilari edi: Mashuvav, Yamlax, Emoziyo
o‘g‘li Yo‘sha, Yo‘el va Yo‘shyiviyo o‘g‘li Yohu. Yohu Sarayoning nevarasi, Osiyolning
evarasi edi. Eliyo‘nay, Yaqo‘vo, Yoshuxayo, Osoyoh, Odil, Yesimil, Binayo va Shifi o‘g‘li
Zizo ham Shimo‘n naslining urug‘boshilari edi. Zizo Elonning nevarasi, Yodiyoning
evarasi, Shamayo o‘g‘li Shimrining chevarasi edi.
Ularning urug‘lari nihoyatda ko‘paygani uchun, 39 ular qo‘y–echkilariga yaylov
axtarib, vodiyning sharqiy chetida joylashgan Gado‘r shahrigacha bordilar. 40 U yerdagi
keng, tinch va osoyishta joylar ko‘m–ko‘k yaylovlarga boy ekanini ko‘rdilar. Bu yerlar
azaldan Xom nasliga qarashli edi.
41 Yahudo shohi Hizqiyo hukmronlik qilgan davrda yuqorida nomlari ro‘yxat qilingan
Shimo‘n nasli Xom nasliga va ular orasida o‘rnashib olgan Munim urug‘iga hujum
qildilar. Ularning hammasini bitta qoldirmay qirib tashladilar. U yerda qo‘ylar uchun
yaylovlar ko‘p bo‘lgani uchun ularning joyiga o‘zlari o‘rnashib oldilar. 42 So‘ng Shimo‘n
naslidan besh yuz kishi Yishining Pilatiyo, Nariyo, Rafiyo va Uziyol ismli to‘rt o‘g‘li
boshchiligida Seir tog‘lariga* borib, 43 Omolek naslining omon qolganlarini qirib
tashladilar. Shimo‘n nasli bugunga qadar* o‘sha joylarda yashab kelyapti.

5–BOB

Ruben nasli

1 Ruben Yoqubning* to‘ng‘ich o‘g‘li edi. Ammo u otasining to‘shagini bulg‘agani
uchun*, to‘ng‘ichlik huquqi* Yusufning o‘g‘illariga berilgan edi. Shu sababdan Ruben
nasabnomada to‘ng‘ich sifatida ro‘yxatda yo‘q. 2 Rubenning ukasi Yahudo aka–ukalari
orasida eng kuchlisi bo‘lib, yo‘lboshchi uning qabilasidan chiqdi*. Lekin shunga
qaramay, to‘ng‘ichlik huquqi Yusufniki bo‘ldi. 3 Ruben to‘rt o‘g‘il ko‘rdi. Ularning ismlari
Xano‘x, Palluv, Xazron va Karmi edi.
4 Yo‘elning nasli quyidagilardan iborat edi: Yo‘elning o‘g‘li — Shamayo, Shamayoning
o‘g‘li — Go‘g, Go‘gning o‘g‘li — Shimax, 5 Shimaxning o‘g‘li — Mixo, Mixoning o‘g‘li —
Rayo, Rayoning o‘g‘li — Baal 6 va Baalning o‘g‘li — Berax. Ossuriya shohi Tig‘latpilasar*
Beraxni asir qilib, olib ketgan edi. Berax Ruben qabilasining yo‘lboshchisi edi.
7 Ruben qabilasining quyidagi urug‘boshilari ham nasabnoma ro‘yxatida qayd
etilgan: Yaviyol, Zakariyo 8 va Belax. Belax Azazning o‘g‘li, Shemaning nevarasi va
Yo‘elning evarasi edi. Ular Aror shahrida hamda shimoldagi Navo va Baal–Miyonga

qadar cho‘zilgan yerlarda yashadilar. 9 Ularning Gilad o‘lkasidagi podasi haddan tashqari ko‘p bo‘lgani uchun, ular sharqdagi sahrogacha bo‘lgan hamma yerlarni egallab olgan edilar. Bu sahro Furot daryosigacha cho‘zilgan edi.

10 Ruben nasli shoh Shoul davrida Hojar urug‘iga qarshi urush ochdi. Ularni mag‘lub qilib, Giladning sharqidagi hamma yerlarini egallab oldi.

Gad nasli

11 Gad qabilasi Bashan o‘lkasida, Ruben qabilasining shimolida yashagan edi. Ularning hududi Salko shahriga qadar cho‘zilgandi. 12 Yo‘el Bashanda yo‘lboshchi edi, uning o‘ng qo‘l yordamchisi Shofom edi, Yanay va Shofot urug‘boshilar edilar.

13 Gad qabilasining qolgan a’zolari quyidagi yetti uruqqa tegishli edi: Mikoyil, Mashullom, Sheba, Yo‘ray, Yaqan, Ziya va Ibir. 14 Bular Abuhayilning o‘g‘illari bo‘lib, ularning yettinchi avlodigacha bo‘lgan ajdodlari quyidagilar edilar: Xuri, Yoro‘vax, Gilad, Mikoyil, Yashishay, Yaxdu va Buz. 15 Go‘noning nevarasi, Abdil o‘g‘li Oxi bu urug‘larning yo‘lboshchisi edi.

16 Gad qabilasi Giladda, Bashanda va o‘sha yerdagi shaharlarda hamda Sharondagi butun yaylovlarda istiqomat qilardi.

17 Bu ma’lumotlarning hammasi Yahudo shohi Yo‘tom va Isroil shohi Yorubom hukmronligi davrida nasabnomaga kiritilgandi.

Iordan sharqidagi qabilalar lashkari

18 Ruben, Gad qabilalari va Manashe qabilasi yarmining* 44.760 nafar jangga tayyor, mohir sipohlari bor edi. Bu sipohlar kamonkashlar bo‘lib, qilich va qalqon bilan ham qurollangan edilar. 19 Ular Hojar urug‘iga, Yatur, Nofish va Nadav qabilalariga hujum qildilar. 20 Jang paytida bu sipohlar Xudoga iltijo qildilar. Ular Xudoga ishonganlari uchun Xudo iltijolariga javob berib, Hojar urug‘ini va barcha ittifoqchilarini ularning qo‘liga berib, mag‘lub qildi. 21 Ular dushmanning chorvasidan 50.000 ta tuya, 250.000 ta qo‘y, 2000 ta eshakni o‘lja oldilar va 100.000 odamni asir qildilar. 22 G‘animning ko‘pchiligi jangda qirilib ketgandi, chunki Xudoning O‘zi ularga qarshi jang qilgan edi. Ruben va Gad qabilalari hamda Manashe qabilasining yarmi surgungacha* o‘sha yerlarda yashab qoldilar.

Iordan sharqidagi Manashe qabilasining yarmi

23 Manashe qabilasining yarmi Sanir, ya’ni Xermon tog‘idagi Baal–Xermonga qadar cho‘zilgan Bashan o‘lkasida joylashib, ko‘paydi. 24 Qabilaning urug‘boshilari quyidagilar edi: Ifar, Yishi, Eliyol, Ozriyol, Yeremiyo, Xo‘daviyo va Yaxdiyol. Ular bahodir jangchilar bo‘lib, o‘z urug‘larining mashhur boshliqlari edilar.

Iordan sharqidagi qabilalar surgun qilinadi

25 Ruben va Gad qabilalari hamda Manashe qabilasining yarmi ota–bobolarining Xudosiga qarshi gunoh qildilar. Ular Xudoga bevafolik qilib, Xudo qirib yuborgan o‘sha yurtdagi xalqlarning xudolariga sig‘ina boshladilar. 26 Shuning uchun Isroil xalqining Xudosi Ossuriya shohi Po‘lni, ya’ni Tig‘latpilasarni yuborib, Ruben, Gad qabilalarini va Manashe qabilasining yarmini mag‘lub qildi. Shoh Tig‘latpilasar ularni asir olib, Xalax, Xavor va Xara hududlariga hamda Gozan daryosining bo‘ylariga surgun qildi*. Ular bugungacha o‘sha yerlarda istiqomat qilib kelyaptilar.

6–BOB

Oliy ruhoniylar xonadonining shajarasi

1 Levining o‘g‘illari Gershon, Qohot va Marori edi.
2 Qohotning o‘g‘illari Imrom, Izxor, Xevron va Uziyol edi.
3 Imromning Horun va Muso ismli ikki o‘g‘li va Maryam ismli bir qizi bor edi.
Horunning o‘g‘illari Nadov, Abihu, Elazar va Itamar edi.
4 Elazardan Finxaz tug‘ildi, Finxazdan Abushuva tug‘ildi, 5 Abushuvadan Bukki
tug‘ildi, Bukkidan Uzzi tug‘ildi, 6 Uzzidan Zaraxiyo tug‘ildi, Zaraxiyodan Maroyo‘t tug‘ildi,
7 Maroyo‘tdan Emoriyo tug‘ildi, Emoriyodan Oxitob tug‘ildi, 8 Oxitobdan Zodo‘x tug‘ildi,
Zodo‘xdan Oximas tug‘ildi, 9 Oximasdan Ozariyo tug‘ildi, Ozariyodan Yo‘xanon tug‘ildi,
10 Yo‘xanondan Ozariyo tug‘ildi. Shoh Sulaymon Quddusda qurgan Ma’badda* Ozariyo
ruhoniy bo‘lib xizmat qilgan edi. 11 Ozariyodan Emoriyo tug‘ildi, Emoriyodan Oxitob
tug‘ildi, 12 Oxitobdan Zodo‘x tug‘ildi, Zodo‘xdan Shallum tug‘ildi, 13 Shallumdan Xilqiyo
tug‘ildi, Xilqiyodan Ozariyo tug‘ildi, 14 Ozariyodan Sarayo tug‘ildi, Sarayodan Yohuzadax
tug‘ildi.
15 Egamiz shoh Navuxadnazar orqali Yahudo va Quddus xalqini surgun qilganda*,
Yohuzadax ham badarg‘a bo‘lgan edi.

Levining boshqa nasli

16 Levining o‘g‘illari Gershon, Qohot va Marori edi.
17 Gershonning o‘g‘illari ismi Lubnax va Shimax edi.
18 Qohotning o‘g‘illari Imrom, Izxor, Xevron va Uziyol edi.
19 Marorining o‘g‘illari Maxli va Mushi edi.

Ota xonadoniga ko‘ra, ro‘yxatga olingan Levi urug‘lari quyidagilardan iborat edi:

20 Gershon nasli quyidagilar edi: Gershondan Lubnax tug‘ildi, Lubnaxdan
Yaxat tug‘ildi, Yaxatdan Zimmo tug‘ildi, 21 Zimmodan Yo‘x tug‘ildi, Yo‘xdan Yiddo
tug‘ildi, Yiddodan Zerax tug‘ildi, Zeraxdan Yotaray tug‘ildi.
22 Qohotning nasli quyidagilar edi: Qohotdan Ominadav tug‘ildi, Ominadavdan
Ko‘rax tug‘ildi, Ko‘raxdan Asir tug‘ildi, 23 Asirdan Elqana tug‘ildi, Elqanadan
Abuasaf* tug‘ildi, Abuasafdan Asir tug‘ildi, 24 Asirdan Taxat tug‘ildi, Taxatdan
Uriyol tug‘ildi, Uriyoldan Uzziyo tug‘ildi, Uzziyodan Shovul tug‘ildi.
25 Elqananing Emosay va Oximo‘t degan ikki o‘g‘li bor edi. 26 Oximo‘tdan
Elqana tug‘ildi, Elqanadan Zo‘fay tug‘ildi, Zo‘faydan Naxat tug‘ildi, 27 Naxatdan
Eliyob tug‘ildi, Eliyobdan Yeroxam tug‘ildi, Yeroxamdan Elqana tug‘ildi,
Elqanadan Shomuil tug‘ildi*.
28 Shomuilning ikki o‘g‘li bor edi, to‘ng‘ichining ismi Yo‘el, kenjasining ismi
Abiyo edi.
29 Marorining nasli quyidagilar edi: Maroridan Maxli tug‘ildi, Maxlidan
Lubnax tug‘ildi, Lubnaxdan Shimax tug‘ildi, Shimaxdan Uzzox tug‘ildi,
30 Uzzoxdan Shimo tug‘ildi, Shimodan Xaggiyo tug‘ildi, Xaggiyodan Osoyoh
tug‘ildi.

Ma’bad sozandalari

31 Ahd sandig‘i Egamizning uyiga kelgandan keyin, Dovud u yerdagi xizmatga
sozandalar tayinlagandi. 32 Sulaymon Quddusda Egamizning uyini qurgunga qadar, ular
Muqaddas chodirning oldida* qo‘shiq aytib xizmat qilishardi. O‘z xizmatlarini berilgan
ko‘rsatmalar asosida ado etishardi. 33 U yerda xizmat qilgan odamlar quyidagi
urug‘lardan edi:

Qo‘shiqchi Xaman Qohot urug‘idan bo‘lib, uning nasabnomasi quyidagicha
edi: Xaman — Yo‘elning o‘g‘li, Yo‘el — Shomuilning o‘g‘li, 34 Shomuil —
Elqananing o‘g‘li, Elqana — Yeroxamning o‘g‘li, Yeroxam — Eliyolning o‘g‘li,
Eliyol — To‘vaxning o‘g‘li, 35 To‘vax — Zufning o‘g‘li, Zuf — Elqananing o‘g‘li,
Elqana — Maxatning o‘g‘li, Maxat — Emosayning o‘g‘li, 36 Emosay — Elqananing
o‘g‘li, Elqana — Yo‘elning o‘g‘li, Yo‘el — Ozariyoning o‘g‘li, Ozariyo —
Zafaniyoning o‘g‘li, 37 Zafaniyo — Taxatning o‘g‘li, Taxat — Asirning o‘g‘li, Asir —
Abuasafning o‘g‘li, Abuasaf — Ko‘raxning o‘g‘li, 38 Ko‘rax — Izxorning o‘g‘li, Izxor
— Qohotning o‘g‘li, Qohot — Levining o‘g‘li, Levi — Yoqubning* o‘g‘li.
39 Xamanning o‘ng qo‘l yordamchisi Osif ismli qarindoshi edi. Osifning
nasabnomasi quyidagicha edi: Osif — Barxiyoning o‘g‘li, Barxiyo — Shimoning
o‘g‘li, 40 Shimo — Mikoyilning o‘g‘li, Mikoyil — Bosiyoning o‘g‘li, Bosiyo —
Malkiyoning o‘g‘li, 41 Malkiyo — Itnoning o‘g‘li, Itno — Zeraxning o‘g‘li, Zerax —
Odayoning o‘g‘li, 42 Odayo — Etxanning o‘g‘li, Etxan — Zimmoning o‘g‘li, Zimmo
— Shimaxning o‘g‘li, 43 Shimax — Yaxatning o‘g‘li, Yaxat — Gershonning o‘g‘li,
Gershon — Levining o‘g‘li.
44 Xamanning chap qo‘l yordamchisi Etxan ismli qarindoshi edi. U Marori
urug‘idan edi. Etxanning nasabnomasi quyidagicha edi: Etxan — Xishining o‘g‘li,
Xishi — Abdining o‘g‘li, Abdi — Malluxning o‘g‘li, 45 Mallux — Xashaviyoning
o‘g‘li, Xashaviyo — Emoziyoning o‘g‘li, Emoziyo — Xilqiyoning o‘g‘li, 46 Xilqiyo —
Omzining o‘g‘li, Omzi — Banixning o‘g‘li, Banix — Shamerning o‘g‘li, 47 Shamer —
Maxlining o‘g‘li, Maxli — Mushining o‘g‘li, Mushi — Marorining o‘g‘li, Marori —
Levining o‘g‘li.

48 Xudoning uyidagi boshqa hamma xizmatga Levi qabilasining qolgan a’zolari
tayinlangan edilar.

Horunning nasli

49 Faqat Horun va uning nasli qurbongohda qurbonlik kuydirib, tutatqi
qurbongohida xushbo‘y tutatqi tutatishlari mumkin edi. Ular Eng muqaddas xonadagi
barcha xizmatni ado etib, Xudoning quli Muso bergan hamma buyruqlarga ko‘ra, Isroil
xalqini gunohdan poklar edilar.
50 Horunning nasli quyidagilar edi: Horunning o‘g‘li — Elazar, Elazarning o‘g‘li —
Finxaz, Finxazning o‘g‘li — Abushuva, 51 Abushuvaning o‘g‘li — Bukki, Bukkining o‘g‘li
— Uzzi, Uzzining o‘g‘li — Zaraxiyo, 52 Zaraxiyoning o‘g‘li — Maroyo‘t, Maroyo‘tning o‘g‘li
— Emoriyo, Emoriyoning o‘g‘li — Oxitob, 53 Oxitobning o‘g‘li — Zodo‘x, Zodo‘xning o‘g‘li
— Oximas.

Levilar yashagan shaharlar

54 Levilarga ajratilgan shaharlardan Qohot urug‘ining Horun nasli birinchi bo‘lib
ulush olgan edi. Ularga qur’a bo‘yicha* berilgan hududga 55 Yahudo yurtidagi Xevron
shahri va uning atrofidagi yaylovlar kirgan edi. 56 Ammo o‘sha shaharning atrofidagi
dalalaru qishloqlar Yafunax o‘g‘li Xolibga berildi. 57 Horun nasliga quyidagi shaharlar va
ularning atrofidagi yaylovlar berildi: panoh shahar* Xevron, bundan tashqari, Libna,
Yatir, Eshtamo‘va, 58 Xo‘lun*, Davir, 59 Oyin*, Yutto* va Bayt–Shamash. 60 Benyamin
qabilasining hududidan quyidagi shaharlar va ularning atrofidagi yaylovlar ham berildi:
Givon*, Gebo, Elimat va Onoto‘t. Qohot urug‘ining Horun nasliga hammasi bo‘lib o‘n
uchta shahar berildi. 61 Qohot naslining qolganlariga esa Iordanning g‘arb tomonidagi
Manashe qabilasiga qarashli hududdan o‘nta shahar qur’a bo‘yicha taqsimlab berildi.
62 Gershon urug‘iga, xonadonlariga ko‘ra, Issaxor, Osher, Naftali va Bashandagi
Manashe qabilalarining hududlaridan o‘n uchta shahar qur’a bo‘yicha berildi.
63 Marori urug‘iga, xonadonlariga ko‘ra, Ruben, Gad va Zabulun qabilalarining
hududlaridan o‘n ikkita shahar qur’a bo‘yicha berildi.
64 Shunday qilib, Isroil xalqi levilarga yashash uchun shaharlarni va o‘sha shaharlar
atrofidagi yaylovlarni ajratib berdi. 65 Yuqorida nomlari aytib o‘tilgan Yahudo, Shimo‘n
va Benyamin qabilalari hududlaridan ajratilgan shaharlar ham qur’a bo‘yicha
taqsimlangan edi.
66 Qohot urug‘ining ba’zi xonadonlariga Efrayim qabilasining hududidan quyidagi
shaharlar va ularning atrofidagi yaylovlar berildi: 67 Efrayim qirlaridagi panoh shahar
Shakam, Gezer, 68 Yoxmayom, Bayt–Xo‘ron, 69 Oyjavlon va Gat–Rimmon. 70 Qohot
urug‘ining qolgan xonadonlariga esa Iordanning g‘arb tomonidagi Manashe qabilasining
yarmiga qarashli ikki shahar berildi: Onar va Bilom. Bu shaharlarning atrofidagi
yaylovlar ham ularga berildi.
71 Gershon urug‘iga quyidagi shaharlar va ularning atrofidagi yaylovlar berildi:

Iordanning sharq tomonidagi Manashe qabilasining hududidan — Ashtaro‘t va
Bashandagi Go‘lon,
72 Issaxor qabilasining hududidan — Kedesh, Dovarat, 73 Ramo‘t va Onem,
74 Osher qabilasining hududidan — Moshol, Abdo‘n, 75 Huqqoq va Rexob,
76 Naftali qabilasi hududidan — Xammon, Xiratayim va Jaliladagi Kedesh.

77 Marori urug‘ining qolgan xonadonlariga quyidagi shaharlar va ularning atrofidagi
yaylovlar berildi:

Zabulun qabilasining hududidan — Yoxnayom, Kartax*, Rimmono va Tovur,
78-79 Yerixo ro‘parasidagi Iordan daryosining sharq tomonida joylashgan Ruben
qabilasining hududidan — Yaxaz*, Kadamo‘t, Mifat va cho‘ldagi Bazer,
80 Gad qabilasining hududidan — Giladdagi Ramo‘t, Moxanayim, 81 Xashbon va
Yazir.

7–BOB

Issaxor nasli

1 Issaxorning To‘lo, Puvax, Yoshuv va Shimron degan to‘rtta o‘g‘li bor edi.

2 To‘loning oltita o‘g‘li bor edi: Uzzi, Rafiyo, Yoriyol, Yaxmay, Yibsam va Shomuil. Ular
o‘z xonadonlarining urug‘boshilari edilar. Shoh Dovud davrida To‘loning
nasabnomasida 22.600 nafar jangchi qayd etilgan edi.
3 Uzzining Yizraxiyo degan o‘g‘li bor edi. Yizraxiyoning to‘rtta o‘g‘li bo‘lib, ismlari
Mikoyil, Obodiyo, Yo‘el va Ishshiyo edi. Yizraxiyo va uning o‘g‘illari urug‘boshilar edi.
4 Ularning xotinlari va bolalari nihoyatda ko‘p bo‘lgani uchun nasabnomasiga ko‘ra, jang
qilishga qodir 36.000 odami bor edi.
5 Issaxor qabilasining nasabnomasida hammasi bo‘lib 87.000 nafar jangchi qayd
etilgan edi.

Benyamin nasli

6 Benyaminning Belax, Boxir va Yodiyol degan uch o‘g‘li bor edi.
7 Belaxning Ezbo‘n, Uzzi, Uziyol, Yarimo‘t va Iri degan beshta o‘g‘li bor edi. Ularning
beshovi ham urug‘boshilar bo‘lib, nasabnomasida 22.034 nafar bahodir jangchi qayd
etilgan edi.
8 Boxirning Zomiro, Yo‘sh, Eliazar, Eliyo‘nay, Omri, Yorimo‘t, Abiyo, Onoto‘t va Elimat
degan o‘g‘illari bor edi. Bularning hammasi Boxirning o‘g‘illari edi. 9 Ularning
nasabnomasida urug‘boshilardan tashqari 22.200 nafar jangchi qayd etilgan edi.
10 Yodiyolning Bilxan degan bitta o‘g‘li, Bilxanning esa Yoush, Benyamin, Ehud,
Xanano, Zaton, Tarshish va Oxishar degan yetti o‘g‘li bor edi. 11 Ularning hammasi
urug‘boshilar bo‘lib, nasabnomasiga ko‘ra, jang qilishga tayyor 17.200 nafar odami bor
edi.
12 Shupim va Xupim xalqlari — Irdan, Xushim xalqi esa Oxerdan kelib chiqqandi.

Naftali nasli

13 Naftalining Yaxziyol, Go‘no, Izar va Shillem* degan to‘rtta o‘g‘li bor edi. Ular
Bilxaxning* naslidan edi.

Manashe nasli

14-15 Oramlik cho‘risi* Manashega Osriyol va Moxir ismli ikki o‘g‘il tug‘ib berdi.
Zalofxod Manashening avlodidan bo‘lib, faqat qizlar ko‘rgan edi. Moxir Giladning otasi
edi, u Maxo ismli bir qizga uylangandi. Maxo Xupim va Shupimning singlisi edi. 16 Maxo
Moxirga ikki o‘g‘il tug‘ib berdi. Ularning ismini Parash va Sharash qo‘ydilar. Parash
Ulom va Rahem ismli ikki o‘g‘il ko‘rdi. 17 Ulomning Badon degan o‘g‘li bor edi.
Manashe nevarasi Moxir o‘g‘li Giladning nasli mana shulardan iboratdir.
18 Giladning singlisi Xamaleka Ishxo‘d, Abuazar va Maxlo ismli uchta o‘g‘ilni tug‘di.
19 Shamidoning Oxiyon, Shakam, Lixi va Oniyom degan o‘g‘illari bor edi.

Efrayim nasli

20 Efrayimning Shutalax degan o‘g‘li bor edi. Shutalaxdan Barid tug‘ildi, Bariddan —
Taxat, Taxatdan — Eladax, Eladaxdan — Taxat, 21 Taxatdan — Zabad, Zabaddan
Shutalax tug‘ildilar.
Efrayimning Shutalaxdan tashqari yana Eyzar va Elad ismli ikki o‘g‘li ham bor edi.
Ular Gat shahrining tub aholisiga qarashli chorvani o‘g‘irlamoqchi bo‘lganlarida,
Gatliklar ularni o‘ldirgan edilar. 22 Ularning otasi Efrayim ko‘p kunlar aza tutdi.
Qarindoshlari unga tasalli bergani keldilar. 23 Efrayim xotini bilan yana qovushgan edi,
xotini homilador bo‘lib, o‘g‘il tug‘di. Efrayim: “Uyimda baxtsizlik yuz bergan edi”, deb

oʻgʻlining ismini Bariyo* qoʻydi.

24 Efrayimning Shero degan bir qizi bor edi. Shero Tepadagi Bayt–Xoʻron va Pastdagi
Bayt–Xoʻron shaharlarini hamda Uzan–Shero shahrini qurdi.

25 Efrayimning Refax ismli bir oʻgʻli ham bor edi. Refaxdan Rashaf tugʻildi, Rashafdan
— Telax, Telaxdan — Taxan, 26 Taxandan — Laden, Ladendan — Omihud, Omihuddan
— Elishama, 27 Elishamadan — Nun, Nundan Yoshua tugʻildilar.

28 Efrayim nasli janubdagi Baytil shahri, sharqdagi Naron shahri va gʻarbdagi Gezer
shahrigacha choʻzilgan hududni qoʻlga kiritib, oʻsha yerga oʻrnashib olgan edi. Ularning
hududiga oʻsha shaharlar atrofidagi barcha qishloqlar, Shakam va Oya shaharlari hamda
ularning atrofidagi qishloqlar kirgan edi.

29 Manashe qabilasi Bayt–Shan, Tanax, Magidoʻ va Doʻr shaharlari va oʻsha shaharlar
atrofidagi qishloqlarda oʻrnashib olgan edi.

Bu joylarda Yoqubning* oʻgʻli Yusuf avlodlari yashagan edi.

Osher nasli

30 Osherning oʻgʻillari quyidagilardir: Yimnax, Yishvo, Yishvi va Bariyo. Osherning
Serax ismli bir qizi ham bor edi.

31 Bariyoning Xaber va Malxiyol ismli ikki oʻgʻli boʻlib, Malxiyol Birzayit shahrini
qurgan edi.

32 Xaberning Yaflet, Shoʻmer va Xoʻtam ismli uch oʻgʻli va Shuva ismli bir qizi bor edi.

33 Yafletning oʻgʻillari — Poʻsax, Bimxal va Oshvot.

34 Shoʻmerning* oʻgʻillari — Oxi, Roxgax, Xubbo va Oram.

35 Shoʻmerning ukasi Xoʻtamning* oʻgʻillari — Zoʻfax, Yimno, Shalash va Amal.

36 Zoʻfaxning oʻgʻillari — Suvax, Xarnatar, Shuvol, Beri, Yimra, 37 Bazer, Xoʻd,
Shammo, Shilsho, Yitron va Bera.

38 Eterning oʻgʻillari — Yafunax, Fispa va Orro.

39 Ulloning oʻgʻillari — Orax, Xanniyol va Riziyo.

40 Osher nasli ana shulardan iborat boʻlib, ular urugʻboshilar, mashhur bahodir
jangchilar, obroʻli yoʻlboshchilar edilar. Osher qabilasining nasabnomasida jang qilishga
qodir 26.000 kishi qayd etilgan edi.

8–BOB

Yana Benyamin nasli haqida

1 Benyaminning beshta oʻgʻli bor edi. Toʻngʻich oʻgʻli — Belax, ikkinchisi — Oshbol,
uchinchisi — Axrax, 2 toʻrtinchisi — Noʻxax, beshinchisi Rafa edi.

3 Belaxning oʻgʻillari quyidagilardir: Adar, Gera, Abihud, 4 Abushuva, Noʻmon, Oxoʻva,
5 Gera, Shafufon va Xurom.

6-7 Ehudning Noʻmon, Oxiyo va Gera ismli oʻgʻillari boʻlib, ular Gebo shahri
aholisining urugʻboshilari edilar. Gebo aholisi Monaxatga quvib yuborilganda, Gera
xalqni boshlab ketgan edi. Geraning Uzzo va Oxixud ismli ikki oʻgʻli bor edi.

8 Shaxarayim ikkala xotini Baro va Xushimni qoʻyib yuborgandan keyin, Moʻab
yurtida oʻgʻillar koʻrgan edi. 9 Hoʻdash ismli yangi xotini unga Yoʻvov, Zibiyo, Mesho,
Malkam, 10 Yus, Sahiyo va Mirmo degan yetti oʻgʻil tugʻib bergan edi. Shaxarayimning bu
hamma oʻgʻillari urugʻboshilar edilar. 11 Shaxarayimning yana Abutav va Elfal degan
ikkita oʻgʻli ham bor edi. Shaxarayim Moʻabga koʻchib kelmasdan oldin, bu oʻgʻillarni

unga xotini Xushim tug‘ib bergan edi.
12-13 Elfalning Ibir, Mishom, Shamad, Bariyo va Shema degan o‘g‘illari bor edi.
Shamad Ono‘ va Lo‘d shaharlarini, shuningdek, bularning atrofidagi qishloqlarni barpo
qilgan edi. Bariyo bilan Shema esa Oyjavlon shahri aholisining urug‘boshilari bo‘lib, Gat
aholisini quvib yuborgan edilar.
14 Oxyo, Shoshax, Yorimo‘t, 15 Zabadiyo, Arod, Eder, 16 Mikoyil, Yishpo va Yo‘xo
Bariyoning o‘g‘illari edi.
17 Zabadiyo, Mashullom, Xizqi, Xaber, 18 Yishmaray, Yizliyo va Yo‘vov Elfalning
o‘g‘illari edi.
19 Yaxim, Zixri, Zabdi, 20 Elivenay, Zillatay, Eliyol, 21 Odayo, Baroyo va Shimrot
Shimaxning o‘g‘illari edi.
22 Yishpon, Ibir, Eliyol, 23 Abdo‘n, Zixri, Xanon, 24 Xanoniyo, Elam, Onto‘tiyo, 25 Yifdayo
va Panuval Shoshaxning o‘g‘illari edi.
26 Shamsharay, Shaxariyo, Otaliyo, 27 Yarshiyo, Ilyos va Zixri Yeroxamning o‘g‘illari
edi.
28 Ularning hammasi o‘z naslining urug‘boshilari bo‘lib, ismlari o‘z nasli
nasabnomasida qayd etilgan edi. Ular Quddusda yashadilar.
29 Yaviyol* Givon shahriga asos solib, o‘sha shaharda o‘rnashdi*. Xotinining ismi —
Maxo, 30 to‘ng‘ich o‘g‘lining ismi — Abdo‘n, keyingilariniki Zur, Kish, Baal, Nar*, Nadov,
31 Gado‘r, Oxyo, Zakariyo* 32 va Mixlo‘t edi. Mixlo‘t Shimomning* otasi edi. Ular
Quddusda o‘z urug‘lari bilan yonma–yon yashardi.

Shoh Shoulning nasli

33 Nar — Kishning otasi, Kish shoh Shoulning otasi edi. Shoulning to‘rtta o‘g‘li bo‘lib,
ismlari Yo‘natan, Malkishuva, Abunadav va Ishbosit* edi.
34 Yo‘natandan Mefibosit* tug‘ildi, Mefibositdan Mixo tug‘ildi.
35 Mixoning Pito‘n, Malek, Tariya va Oxoz degan o‘g‘illari bor edi.
36 Oxozdan Yohuvaddo tug‘ildi, Yohuvaddodan Elimat, Ozmobit va Zimri tug‘ildilar.
Zimridan Mo‘zo tug‘ildi, 37 Mo‘zodan Bina tug‘ildi, Binadan Rafiyo* tug‘ildi, Rafiyodan
Elasax tug‘ildi, Elasaxdan Oziyol tug‘ildi.
38 Oziyolning oltita o‘g‘li bo‘lib, ularning ismlari Ozrikom, Boxaru, Ismoil, Shariyo,
Obodiyo va Xanon edi. Bularning hammasi Oziyolning o‘g‘illari edi.
39 Oziyolning ukasi Eshexning uchta o‘g‘li bo‘lib, to‘ng‘ichi — Ulom, ikkinchisi —
Yoush, uchinchisi Elifalet edi. 40 Ulomning o‘g‘illari bahodir jangchi va kamonkashlar
edilar. Ularning ko‘p o‘g‘illari va nabiralari bor edi, hammasi bo‘lib 150 nafar edi.
Benyamin qabilasi mana shulardan iborat edi.

9–BOB

1 Shunday qilib, butun Isroil xalqi nasabnomada qayd etilib, ushbu ma’lumotlarning
hammasi “Isroil shohlari kitobi”ga kiritilgan.

Surgundan Quddusga qaytib kelgan xalq

Yahudo xalqi Egamizga xiyonat qilgani uchun Bobilga surgun qilingan edi.
2 Surgundan birinchi bo‘lib oddiy xalq o‘z shaharlaridagi mulklariga qaytib keldi. Ular
bilan birga ba’zi ruhoniylar, levilar va Ma’bad xizmatkorlari ham qaytishgandi. 3 Yahudo,
Benyamin, Efrayim va Manashe qabilasidan bo‘lganlar Quddusga borib o‘rnashdilar.

Qaytib kelganlar orasida quyidagilar bor edi:

Yahudo qabilasidan qaytib kelganlari

4 Yahudo o‘g‘li Paraz naslidan bo‘lgan Utay. U Omihudning o‘g‘li, Omrining
nabirasi, Imrining evarasi va Banixning chevarasi edi.
5 Shelo naslidan — Sheloning to‘ng‘ich o‘g‘li Osoyoh va uning o‘g‘illari,
6 Zerax naslidan — Yoval.
Hammasi bo‘lib Yahudo qabilasidan Quddusga qaytib kelganlar 690 kishini
tashkil qilar edi.

Benyamin qabilasidan qaytib kelganlari

7 Benyamin qabilasidan quyidagilar Quddusga qaytib kelgan edilar:
Mashullom o‘g‘li Sallu. U Xo‘daviyoning nevarasi va Xassinuvaning evarasi edi.
8 Yana Yeroxam o‘g‘li Yibnayo va Uzzi o‘g‘li Elox qaytib kelgan. Elox Mixrining
nevarasi edi. Shafatiyo o‘g‘li Mashullom ham qaytib kelgan. U Ruvelning nevarasi
va Yibniyoning evarasi edi.
9 Nasabnomaga kiritilgan Benyamin nasli 956 kishini tashkil qilgan edi.
Yuqorida aytib o‘tilganlarning hammasi urug‘boshilar edi.

Ruhoniylardan qaytib kelganlari

10 Quyidagi ruhoniylar Quddusga qaytib kelgan edilar: Yodayo, Yohayiriv va
Yoxin. 11 Yana Xudo uyining bosh amaldori Ozariyo qaytib kelgan edi. U
Xilqiyoning o‘g‘li, Mashullomning nevarasi, Zodo‘xning evarasi va Oxitob o‘g‘li
Maroyo‘tning chevarasi edi. 12 Yeroxam o‘g‘li Odayo ham qaytib kelgandi. U
Peshxurning nevarasi va Malkiyoning evarasi edi. Odil o‘g‘li Masay ham qaytib
kelgandi. U Yaxzironing nevarasi, Mashullomning evarasi va Immar o‘g‘li
Mashillamatning chevarasi edi.
13 Hammasi bo‘lib 1760 nafar ruhoniy qaytib kelgan edi. Ular urug‘boshilar
bo‘lib, Xudoning uyida xizmat qilish uchun layoqatli edilar.

Levilardan qaytib kelganlari

14 Quyidagi levilar Quddusga qaytib kelgan edilar: Xashshub o‘g‘li Shamayo. U
Marori urug‘idan bo‘lib, Ozrikomning nevarasi, Xashaviyoning evarasi edi.
15 Yana Bog‘baqar, Xaresh, Galol va Mattaniyo qaytib kelgandi. Mattaniyo
Mixaning o‘g‘li, Zixrining nevarasi va Osifning evarasi edi. 16 Shamayo o‘g‘li
Obodiyo ham qaytib kelgandi. U Galolning nevarasi va Yodutunning evarasi edi.
Oso o‘g‘li Barxiyo ham qaytib kelgandi. U Elqananing nabirasi bo‘lib, Natufo
shahrining qishloqlarida yashagan edi.

Ma’bad darvozabonlaridan qaytib kelganlari

17-18 Levi qabilasidan bo‘lgan, Quddusga qaytib kelgan Ma’bad darvozabonlari
quyidagilar edi: Shallum, Oqquv, Talmo‘n, Oximan va ularning qarindosh–
urug‘lari. Shallum ularning boshlig‘i edi. U bugungacha* sharq tomondagi Shoh
darvozasida soqchilik qilib kelmoqda. 19 Abuasafning* nabirasi Kori o‘g‘li
Shallumga va uning Ko‘rax urug‘idan bo‘lgan qarindoshlariga Ma’bad*
darvozasida soqchilik qilish vazifasi topshirilgan edi. Ularning ota–bobolari ham
ilgarilari Egamizning Muqaddas chodiri kirishida soqchilik xizmatida bo‘lganlar.
20 Elazar o‘g‘li Finxaz* ularning ustidan boshliq edi. Egamiz u bilan birga edi.

21 Mashalmiyo o‘g‘li Zakariyo ham Ma’badning* darvozasida soqchilik
qiladigan bo‘ldi.

22 Darvozani qo‘riqlash uchun hammasi bo‘lib 212 darvozabon tanlab olindi. Ular o‘z
qishloqlarida nasabnomalari bo‘yicha ro‘yxatga olindilar. O‘z vaqtida ularning ota–
bobolarini darvozabonlik vazifasiga shoh Dovud bilan Shomuil payg‘ambar tayinlagan
edilar. 23 Bu darvozabonlar va ularning avlodlari Egamizning uyi darvozalarida soqchilik
qilishardi.
24 Darvozabonlar Ma’badning sharq, g‘arb, shimol va janub tomonidagi darvozalarini
qo‘riqlar edilar. 25 Ularning qishloqlaridagi qarindoshlari aniq belgilangan bir vaqtda
kelib, ular bilan birga yetti kun davomida xizmat qilishga majbur edilar. 26 To‘rt nafar
bosh darvozabon Levi qabilasidan edi. Ular Xudoning uyidagi omborxona va xazinalar
uchun mas’ul edilar. 27 Xudoning uyini qo‘riqlash va ertalablari darvozalarni ochish
ularning zimmasida bo‘lgani uchun, ular tunni Xudoning uyi yonida o‘tkazar edilar.
28 Ma’bad xizmatida foydalaniladigan asbob–anjomlar uchun ba’zi levilar mas’ul
edilar. Ularning vazifasi asbob–anjomlarni ishlatishdan oldin va ishlatilgandan keyin
sanash edi. 29 Ba’zi levilar esa jihozlarga, Muqaddas xonadagi boshqa buyumlarga, sifatli
unga, sharobga, zaytun moyiga, tutatqiga va ziravorlarga mas’ul edilar. 30 Biroq
ziravorlarning aralashmasini faqat ruhoniylar tayyorlay olar edilar. 31 Levilardan biri —
Ko‘rax naslidan bo‘lgan Shallumning to‘ng‘ich o‘g‘li Mattitiyo nazr nonlarini* pishirishga
tayinlangan edi. 32 Uning Qohot naslidan bo‘lgan ba’zi birodarlari esa Shabbat kuni
xontaxtaga qo‘yiladigan muqaddas nonlarni* tayyorlashga mas’ul edilar.
33 Levilarning qo‘shiqchilari Ma’baddagi xonalarda yashar edilar. Ular urug‘boshilar
bo‘lib, kechayu kunduz xizmatda bo‘lganlari uchun boshqa barcha vazifalardan ozod
qilingan edilar. 34 Yuqorida nomlari aytib o‘tilgan levilar urug‘boshilar bo‘lib,
nasabnoma ro‘yxatiga boshliqlar sifatida kiritilgan edilar. Ular Quddusda yashardilar.

Shoh Shoulning nasl–nasabi

35 Yaviyol Givon shahriga asos solib, o‘sha shaharda o‘rnashdi*. Xotinining ismi —
Maxo, 36 to‘ng‘ich o‘g‘lining ismi — Abdo‘n, keyingilariniki Zur, Kish, Baal, Nar, Nadov,
37 Gado‘r, Oxyo, Zakariyo va Mixlo‘t edi. 38 Mixlo‘t Shimomning otasi edi. Ular Quddusda
o‘z urug‘lari bilan yonma–yon yashardi.
39 Nar — Kishning otasi, Kish shoh Shoulning otasi edi. Shoulning to‘rtta o‘g‘li bo‘lib,
ismlari Yo‘natan, Malkishuva, Abunadav va Ishbosit* edi.
40 Yo‘natandan Mefibosit* tug‘ildi, Mefibositdan Mixo tug‘ildi.
41 Mixoning Pito‘n, Malek, Tariya va Oxoz* degan o‘g‘illari bor edi.
42 Oxozdan Yohuvaddo* tug‘ildi, Yohuvaddodan Elimat, Ozmobit va Zimri tug‘ildilar.
Zimridan Mo‘zo tug‘ildi, 43 Mo‘zodan Bina tug‘ildi, Binadan Rafiyo tug‘ildi, Rafiyodan
Elasax tug‘ildi, Elasaxdan Oziyol tug‘ildi.
44 Oziyolning oltita o‘g‘li bo‘lib, ularning ismlari Ozrikom, Boxaru, Ismoil, Shariyo,
Obodiyo va Xanon edi. Oziyolning o‘g‘illari ana shular edilar.

10–BOB

Shoh Shoulning o‘limi

1 Filistlar Isroil lashkari bilan jang qildi. Isroil lashkari Filistlarning oldiga tushib

qochdi, ko‘plari Gilbova tog‘ida* halok bo‘ldi. 2 Filistlar Shoul bilan uning o‘g‘illari
ortidan tushdilar. Natijada Shoulning o‘g‘illari Yo‘natan, Abunadav va Malkishuva
o‘ldirildi. 3 Shoulning atrofida jang tobora avjiga chiqdi. Shu payt Filist kamonkashlari
Shoulga qarata o‘q otdilar. Shoul yaralandi. 4 U qurolbardoriga:
— Qilichingni sug‘urgin–da, menga sanch, toki anavi sunnatsizlar kelib, meni
xo‘rlamasinlar, — dedi.
Lekin qurolbardori qo‘rqdi, Shoulning aytganini qilmadi. Shunda Shoul qilichini
qinidan sug‘urib, o‘zini qilich ustiga tashladi. 5 Qurolbardori ham Shoulning halok
bo‘lganini ko‘rib, o‘zini qilichi ustiga tashlab, o‘ldi. 6 Shunday qilib, Shoul, uning uchala
o‘g‘li va butun xonadoni bir kunda halok bo‘lishdi. 7 Yizril vodiysida* yashaydigan Isroil
xalqi o‘z sipohlarining qochganini, Shoul bilan o‘g‘illari o‘lganini ko‘rishdi–yu,
shaharlarini tashlab qochishdi. Filistlar bu shaharlarga kelib o‘rnashib olishdi.
8 Ertasi kuni Filistlar halok bo‘lganlarni talon–taroj qilgani jang maydoniga kelishdi.
Birdan ular Gilbova tog‘ida Shoul bilan uning o‘g‘illarining jasadlari yotganini ko‘rib
qolishdi. 9 Ular Shoulning kiyimlarini yechishdi, boshini kesib, qurollarini olishdi. Filist
yurti bo‘ylab xabarchilar jo‘natib, bu xushxabarni o‘z butxonalarida e’lon qilib, xalqqa
eshittirishdi. 10 Shoulning qurol–aslahasini o‘z xudolari uyiga qo‘yishdi, boshini esa xudo
Do‘g‘on* uyining devoriga qoqib qo‘yishdi. 11 Giladdagi Yobosh* aholisi Filistlarning
Shoulni nimalar qilganini eshitishdi. 12 Shunda hamma jasur yigitlar Shoul bilan
o‘g‘illarining jasadlarini olib, Yobosh shahriga keltirishdi. Suyaklarini Yoboshdagi eman
daraxti tagiga dafn qilgach, yetti kun ro‘za tutishdi*.
13 Shunday qilib, Shoul Egamizga qilgan sadoqatsizligi uchun halok bo‘lgan edi. U
Egamizning so‘ziga itoat etmadi. Buning ustiga, arvoh chaqiruvchiga maslahat solgan
edi*. 14 Egamizning xohish–irodasini esa so‘ramadi. Shuning uchun Egamiz uni o‘ldirib,
shohlikni Essay o‘g‘li Dovudga berdi.

11–BOB

Dovud Isroil shohi bo‘ladi

1 Jamiki Isroil xalqi Xevronga* — Dovudning huzuriga yig‘ilib shunday dedi:
— Biz sizning jigaringizmiz. 2 Ilgari Shoul shoh bo‘lganda ham, urushlarda Isroil
lashkariga o‘zingiz bosh bo‘lar edingiz. Egangiz Xudo sizga: “Sen xalqim Isroilning
cho‘poni bo‘lib, ularni boqasan, xalqim Isroilga sen rahnamolik qilasan”, deb aytgan edi.
3 Shunday qilib, Dovud Xevronda Isroil oqsoqollari bilan Egamiz oldida ahd qildi.
Isroil oqsoqollari, Egamizning Shomuil orqali bergan so‘ziga muvofiq, Dovudning
boshiga moy surtib, uni Isroil ustidan shoh qilib ko‘tarishdi.

Dovud Quddusni bosib oladi

4 Shoh Dovud bilan hamma Isroil sipohlari Quddusga yurish qildilar. O‘sha davrda
Quddus shahri Yobus deb atalgan bo‘lib, u yerning o‘troq xalqi Yobus xalqi deb atalar
edi. 5 Yobus aholisi Dovudga: “Sen bu yerga kira olmaysan”, dedi. Ammo Dovud Sion
qal’asiga* bostirib kirib, qal’ani egalladi. Keyinchalik bu qal’aga “Dovud qal’asi” deb nom
berildi. 6 Dovud: “Kimki Yobuslarga birinchi bo‘lib hujum qilsa, u lashkarboshi bo‘ladi”,
deb aytgan edi. Zeruya o‘g‘li Yo‘ab birinchi bo‘lib hujum qildi va lashkarboshi bo‘ldi.
7 Dovud qal’ada yashay boshladi. Shuning uchun bu joy “Dovud qal’asi” deb nom oldi.
8 Dovud Quddusning sharq tomonidagi Millodan* boshlab, butun shahar atrofini devor

bilan o‘rab mustahkamladi. Yo‘ab esa shaharning qolgan joylarini tuzatdi. 9 Dovud
tobora kuchayib borardi, chunki Sarvari Olam unga yor edi.

Dovudning “Uch qahramon” va “O‘ttiz qahramon” degan guruhlaridagi bahodir jangchilar

10 Quyida shoh Dovudning bahodir jangchilari ro‘yxati berilgan. Ular qolgan Isroil
xalqi bilan birgalikda Egamizning va’dasiga muvofiq, Dovudni shoh deb e’lon qilganlar
hamda uning shohligi uchun kuchli tayanch bo‘lganlar.
11 Dovudga xizmat qilgan bahodir jangchilar quyidagilar: birinchisi — Xaxmo‘n
urug‘idan Yoshuvam. U “Uch* qahramon”ning* sardori edi. U nayzasi bilan uch yuz
kishiga hujum qilib, hammasini bir jangda o‘ldirgan edi.
12 “Uch qahramon”dan ikkinchisi Oxo‘va urug‘idan Do‘do‘ o‘g‘li Elazar edi. 13 Filistlar
jang qilish uchun Pas–Dammimda to‘planganda, Elazar Dovud bilan birga edi. U yerdagi
dalaning bir qismiga arpa ekilgan edi. Isroil lashkari qocha boshlagach, 14 Elazar bilan
Dovud dalaning o‘rtasida turib olib, u yerni himoya qilishdi. Filistlarni qirib tashlashdi.
Shu tariqa, Egamiz ularni katta g‘alabaga erishtirdi.
15 “O‘ttiz qahramon”* guruhi tarkibiga kirgan o‘sha uchta qahramon* Dovudning
yoniga — Adullam g‘ori oldidagi qoyaga ketishdi*. Rafa vodiysida* Filistlar lashkari
qarorgoh qurgan edi. 16 Bu paytda Dovud o‘zining adirdagi qarorgohida edi. Bitta Filist
qo‘nolg‘asi esa Baytlahmda joylashgan edi. 17 Dovud hasrat bilan:
— Qaniydi birortasi Baytlahm darvozasining yonidagi quduqdan menga suv olib
kelib bersa! — dedi. 18 O‘sha uchta qahramon Filistlar qarorgohini yorib o‘tishdi–da,
Baytlahmdagi darvozaning yonidagi quduqdan suv tortib, Dovudga olib kelishdi. Lekin
Dovud suvni ichmay, yerga to‘kib, Egamizga bag‘ishladi.
19 — Bunday qilishdan meni Xudoyimning O‘zi asrasin! — deb xitob qildi u. — Shu
yigitlarning qonini ichaymi? Axir, ular jonini xavf–xatarga qo‘yib, suv olib kelishdi–ku!
Shuning uchun ham Dovud suvni ichishni istamadi. “Uch qahramon” ana shunday
jasurlik ko‘rsatishgan edi.
20 Yo‘abning akasi Abushay “O‘ttiz* qahramon”ning sardori edi. Abushay nayzasi
bilan uch yuz kishini o‘ldirdi. Shu tariqa u “Uch qahramon” singari dong taratdi. 21 U
“O‘ttiz qahramon”dan ham mashhur edi, ularning yo‘lboshchisi bo‘ldi. Lekin “Uch
qahramon”dan biri hisoblanmasdi.
22 Kabzil shahridan Yohayido o‘g‘li Binayo degan jasur bir jangchi bor edi. U ajoyib
ishlar qildi, Mo‘ablik ikki dovyurak odamni* o‘ldirdi. Qor yoqqan kunda bir xandaqqa
tushib, sherni o‘ldirdi. 23 Yana bo‘yi besh tirsak* keladigan devday bir Misrlikni ham
o‘ldirdi. Misrlikning qo‘lidagi nayzasi to‘quvchining dastgohi xodasiday kelardi. Binayo
uning ustiga tayoq bilan bostirib bordi. Nayzani Misrlikning qo‘lidan tortib oldi–da,
o‘sha nayza bilan uni o‘ldirdi. 24 Binayoning qilgan ishlari ana shulardir. Shu tariqa,
Binayo “Uch qahramon” kabi dong taratdi. 25 U “O‘ttiz qahramon” orasida shuhrat topdi,
lekin “Uch qahramon”dan biri hisoblanmasdi. Dovud uni qo‘riqchilar sardori qilib
tayinladi.
26 Boshqa bahodir jangchilar quyidagilardir:

Yo‘abning ukasi Osoyil,
Baytlahm shahridan Do‘do‘ o‘g‘li Elxanon,
27 Xaro‘d shahridan Shammox*,

Palonlik Xalez,
28 Taxuva shahridan Ixesh o‘g‘li Ero,
Onoto‘t shahridan Abuazar,
29 Xusha shahridan Sibaxay,
Oxo‘va urug‘idan Zalmon*,
30 Natufo shahridan Maxray va Banax o‘g‘li Xaled,
31 Benyamin naslidan Givolik Ribay o‘g‘li Etxay,
Piraton shahridan Binayo,
32 Gash soyliklaridan Xuray,
Bayt–Araba shahridan Abualvon*,
33 Boxurim* shahridan Ozmobit,
Shalbim shahridan Eliyaxba,
34 Gizonlik Yoshon* o‘g‘illari,
Xaror shahridan Shaxey o‘g‘li Yo‘natan,
35 Xarorlik Shoror* o‘g‘li Oxiyom,
Ur o‘g‘li Elifal,
36 Maxirotlik Xafer,
Palonlik Oxiyo,
37 Karmil shahridan Xazro,
Ezbay o‘g‘li Paray*,
38 Natanning ukasi Yo‘el,
Xagri o‘g‘li Mivxor,
39 Ommon xalqidan Zilax,
Baro‘t shahridan Zeruya o‘g‘li Yo‘abning qurolbardori Naxray,
40 Yitar urug‘idan Ero va Goriv,
41 Xet xalqidan Uriyo,
Oxlay o‘g‘li Zabad,
42 Ruben qabilasining yo‘lboshchisi Shizo o‘g‘li Adinax va uning o‘ttiz jangchisi,
43 Maxo o‘g‘li Xanon,
Mitanlik Yoshafat,
44 Ashtarutlik Uzziya,
Arorlik Xo‘tamning o‘g‘illari Shomo va Yaviyol,
45 Shimri o‘g‘li Yodiyol va uning ukasi Tizlik Yo‘xo,
46 Maxavlik Eliyol,
Elnamning o‘g‘illari Yarivay va Yo‘shaviyo,
Mo‘ab yurtidan Yitmo,
47 Eliyol, Obid va Zo‘volik Yasiyol.

12–BOB

Dovudning Benyamin qabilasidan ilk izdoshlari

1 Birmuncha vaqt oldin* Dovud shoh Shouldan qochib, Zixlax shahrida yashab yurgan paytda* ba’zi bahodir jangchilar unga qo‘shilgan edilar. Urushlarda Dovud tomonida jang qilgan bu jangchilar 2 Benyamin qabilasidan, Shoulning qarindosh–urug‘laridan edilar. Ular mohir kamonkashlar bo‘lib, ham o‘ng, ham chap qo‘li bilan o‘q

va toshlarni otar edilar. 3 Ularning bosh sardori Givolik Shamoning o‘g‘li Oxazar edi.
Oxazarning o‘ng qo‘l yordamchisi ukasi Yo‘sh edi. Quyidagilar esa jangchilar edi:

Ozmobitning o‘g‘illari — Yiziyol va Palat,
Baraka va Onoto‘tlik Yohu,
4 “O‘ttiz qahramonning” sardori va mohir jangchisi — Givonlik Yishmayo,
Yeremiyo, Yaxaziyol, Yo‘xanon, Gaderalik Yo‘zabad,
5 Eluzay, Yarimo‘t, Boliyo, Shamariyo va Xaruflik Shafatiyo,
6 Ko‘rax naslidan — Elqana, Ishshiyo, Ozariyol, Yo‘azar va Yoshuvam,
7 Gado‘rlik Yeroxamning o‘g‘illari — Yo‘lax va Zabadiyo.

Dovudning Gad qabilasidan izdoshlari

8 Gad qabilasidan ba’zilari Dovudga qo‘shilmoqchi bo‘lib, adirlardagi pana joylarga bordilar. Ular tajribali bahodir jangchilar bo‘lib, qalqon va nayzani ustalik bilan ishlatardilar. Sherday jasur, tog‘ kiyiklariday chaqqon edilar.
9 Eyzar ularning bosh sardori bo‘lib, ikkinchisi — Obodiyo, uchinchisi — Eliyob,
10 to‘rtinchisi — Mishmanax, beshinchisi — Yeremiyo, 11 oltinchisi — Attay, yettinchisi — Eliyol, 12 sakkizinchisi — Yo‘xanon, to‘qqizinchisi — Elzabad, 13 o‘ninchisi — Yeremiyo, o‘n birinchisi Maxbanay edi.
14 Gad qabilasidan bo‘lgan bu jangchilar sardorlar bo‘lib, orasidagi eng zaifi yuz kishiga, eng kuchlisi esa ming kishiga bas kela olar edi. 15 Ular Iordan daryosining toshqin mavsumida — yilning birinchi oyida daryodan kechib o‘tib, sharqiy va g‘arbiy qirg‘oqlardagi vodiylarda yashaydigan xalqni quvib chiqargan edilar.

Dovudning Benyamin va Yahudo qabilasidan izdoshlari

16 Bir kuni Benyamin va Yahudo qabilasidan ba’zilar adirlardagi pana joylarga, Dovudning yoniga keldilar. 17 Dovud ularni kutib olgani chiqib, ularga dedi: “Agar bu yerga tinchlik bilan, menga yordam bergani kelgan bo‘lsangizlar, qatorimizga marhamat qilinglar. Bordi–yu, meni dushmanlarim qo‘liga topshirmoqchi bo‘lib kelgan bo‘lsangizlar, ota–bobolarimizning Xudosi buni ko‘rib jazoingizni bersin. Men sizlarga hech qanday yomonlik qilganim yo‘q.”
18 Shunda “O‘ttiz qahramon”ning sardori Emosayni Xudoning Ruhi qamrab oldi va Emosay gapira boshladi:

“Biz siznikimiz, ey Dovud!
Siz tomondamiz, ey Essay o‘g‘li!
Omon bo‘ling, iloyim omon bo‘ling!
Sizga yordam berganlar ham omon bo‘lsin!
Sizni qo‘llagan Xudoyingizning O‘zidir.”

Dovud ularni jangchilari qatoriga qo‘shib, lashkarining sardorlari qilib tayinladi.

Dovudning Manashe qabilasidan izdoshlari

19 Dovud Filistlarga qo‘shilib, Shoulga qarshi urushga otlanganda*, Manashe qabilasidan ba’zilari Dovud tomonga o‘tib olgan edilar. Biroq natijada Dovud Filistlar tomonida jang qila olmagan edi, chunki Filist beklari maslahatlashib: “Agar Dovud o‘z xo‘jayini Shoul tomonga o‘tib olsa, boshimiz ketadi”, deb uni orqaga qaytarib yuborgan

edilar. 20 Dovud Zixlaxga qaytib ketayotganda, uning tomoniga Manashe qabilasidan
quyidagilar o‘tib olgan edilar: Adnax, Yo‘zabad, Yodiyol, Mikoyil, Yo‘zabad, Elixu,
Zillatay. Ular Manashe qabilasining mingboshilari hamda 21 bahodir jangchilari
bo‘lganlari uchun Dovud ularni o‘z lashkari ustidan lashkarboshilar qilib tayinladi. Ular
bosqinchi to‘dalarni yo‘q qilishda Dovudga yordam bergan edilar. 22 Kundan–kunga
Dovudga qo‘shilgan odamlarning soni ko‘payib borar edi. Natijada Xudoning lashkari
singari buyuk bir lashkar hosil bo‘ldi.

Dovud lashkarining ro‘yxati

23 Dovud Xevronda* turgan paytda ko‘p mohir jangchilar kelib, uning lashkari
qatoriga qo‘shilgan edilar. Egamizning so‘ziga binoan, Shoulning o‘rniga Dovudni taxtga
o‘tqizmoqchi bo‘lgan o‘sha jangchilarning soni quyidagicha edi:

24 Yahudo qabilasidan qalqon va nayza bilan qurollangan 6800 kishi.
25 Shimo‘n qabilasidan — 7100 nafar bahodir jangchi.
26 Levi qabilasidan — 4600 kishi. 27 Bularning qatoriga Horun xonadonining
yo‘lboshchisi Yohayido va uning 3700 odami, 28 yosh jangchi Zodo‘x va uning
urug‘idan 22 nafar sardor ham kirgan edi.
29 Benyamin qabilasidan — Shoulga qarindosh bo‘lgan 3000 kishi. Benyamin
qabilasining ko‘pchiligi shu paytgacha Shoul xonadoniga sadoqatini saqlab
kelgan edi.
30 Efrayim qabilasidan — o‘z urug‘ida dong taratgan 20.800 bahodir jangchi.
31 Iordan daryosining g‘arb tomonidagi Manashe qabilasining yarmidan —
18.000 kishi. Ular maxsus tanlab olingan bo‘lib, Dovudni shoh qilish maqsadi
bilan Xevronga kelgan edilar.
32 Issaxor qabilasidan — 200 nafar lashkarboshi va ularning qo‘l ostidagi
odamlari. Bu lashkarboshilar Isroil xalqining nima qilishini va qachon
qilishini yaxshi bilishar edi.
33 Zabulun qabilasidan — 50.000 mohir jangchi. Ular Dovudga cheksiz sadoqati
bilan xizmat qilish uchun tish–tirnog‘igacha qurollanib, jangga tayyor bo‘lib
kelgan edilar.
34 Naftali qabilasidan — 1000 nafar sardor hamda qalqon va nayza bilan
qurollangan 37.000 kishi.
35 Dan qabilasidan — jangga tayyor 28.600 kishi.
36 Osher qabilasidan — jangga tayyor 40.000 mohir jangchi.
37 Iordan daryosining sharq tomonidagi Ruben, Gad qabilalaridan va Manashe
qabilasining yarmidan — 120.000 kishi. Ular barcha jang aslahalari bilan
qurollangan edilar.

38 Bu jangchilarning hammasi jangovar holatda bo‘lib, Dovudni butun Isroil ustidan
shoh qilish maqsadida Xevronga kelgan edilar. Isroilning qolgan xalqi ham Dovudni
shoh qilish maqsadiga qo‘shilgan edi. 39 Jangchilar Dovudning huzurida uch kun qolib,
qarindoshlari tayyorlagan taomlardan yeb, ichimliklardan ichib, ziyofat qilishdi.
40 Shimoldagi Issaxor, Zabulun va Naftali qabilalarining olis hududlaridan ham odamlar
kelishgan edi. Ular eshak, tuya, xachir, ho‘kizlarga bir talay un, anjir qoqi, mayiz*,
sharob, zaytun moyi kabi yeguliklar ortib, olib kelishgan edi. Bulardan tashqari, ko‘plab

mol va qo‘ylarni yetaklab kelishgandi. Ha, butun Isroilda xursandchilik hukmron edi.

13–BOB

Ahd sandig‘i Xirat–Yo‘rimdan keltiriladi

1 Dovud har bir lashkarboshisi — mingboshi va yuzboshilari bilan maslahatlashdi. 2-3 So‘ng butun Isroil jamoasiga dedi: “Shoh Shoul davrida biz Xudoyimizning Ahd sandig‘iga e’tiborsiz bo‘lib keldik*. Kelinglar, Ahd sandig‘ini qaytarib olib kelaylik. Butun Isroil bo‘ylab xabar jo‘natib yurtdagi jamiki qarindosh–urug‘larimizni shu yerga yig‘aylik, o‘z shaharlarida yashaydigan ruhoniylaru levilar ham oldimizga yig‘ilib kelishsin. Agar siz bunga rozi bo‘lsangiz va bu Egamiz Xudoning irodasi bo‘lsa, shuni qilaylik.” 4 Butun jamoaga bu taklif ma’qul tushib, hamma taklifga rozi bo‘ldi.

5 Shunday qilib, Dovud Xudoning Sandig‘ini Xirat–Yo‘rimdan* Quddusga olib kelish uchun butun yurtdagi — Misrdagi Shixor daryosidan tortib, to shimoldagi Levo–Xomat shahriga* qadar bo‘lgan joylardagi jamiki Isroil xalqini to‘pladi. 6 Ular birgalikda Xudoning Ahd sandig‘ini olib kelish uchun Yahudodagi Baalax, ya’ni Xirat–Yo‘rim shahriga yo‘l olishdi. Ahd sandig‘i ikki karub* orasida taxt qurgan Egamizning nomi bilan atalgan edi. 7 Xudoning Sandig‘i Abunadavning uyida edi. Sandiq yangi arava ustiga ortilgach, Uzzox bilan Oxyo* aravani haydab ketishdi. 8 Dovud va jamiki Isroil xalqi Xudoning huzurida berilib o‘yin–kulgi qilayotgan edilar. Ular lira, arfa, childirma, zil va karnaylar chalib, qo‘shiqlar bilan bu voqeani bayram qilayotgan edilar.

9 Ular Noxun* degan odamning xirmoniga yetganlarida, ho‘kizlar qoqilib ketdi. Uzzox Sandiqni ushlab qolmoqchi bo‘lib qo‘lini uzatdi. 10 Lekin Uzzox Ahd sandig‘iga qo‘l uzatgani uchun*, Egamiz undan g‘azablandi. Uzzoxni urib, jonini oldi. Uzzox o‘sha yerda — Xudoning oldida jon berdi. 11 Egamiz Uzzoxni nobud qilgani uchun Dovud qattiq g‘azablandi. O‘sha kundan buyon shu joy “Paraz–Uzzox”* deb aytiladi.

12 Dovud o‘sha kuni Xudodan qo‘rqib: “Qanday qilib Xudoning Sandig‘ini o‘zim bilan olib kela olar ekanman?” deb o‘yladi. 13 U Sandiqni o‘zi bilan Dovud qal’asiga olib bormay, uni Gatlik* Obidadomning uyiga tashlab ketdi. 14 Xudoning Sandig‘i u yerda uch oy turdi. Obidadomning xonadoniga va jamiki mol–mulkiga Egamiz baraka berdi.

14–BOB

Dovudning Quddusdagi faoliyati

1 Tir* shohi Xiram Dovud huzuriga elchilar yubordi. Ular bilan Dovudga saroyining qurilishi uchun sadr yog‘ochlarini jo‘natdi, tosh teruvchilar va duradgorlarni yo‘lladi. 2 Dovud endi bildiki, Egamiz uni Isroil ustidan shoh qilib tayinlagan ekan, O‘z xalqining haqi–hurmati uchun uning shohligini nihoyatda yuksaltirgan ekan.

3 Dovud Quddusda yana xotinlar oldi, ular Dovudga yanada ko‘p o‘g‘il–qizlar tug‘ib berishdi. 4 Dovudning Quddusda tug‘ilgan farzandlari quyidagilar edi: Shammuva, Sho‘vav, Natan, Sulaymon, 5 Yibxar, Elishuva, Elfalat, 6 No‘gax, Nafax, Yofiya, 7 Elishama, Elyodax* va Elifalet.

Filist xalqi ustidan g‘alaba

8 Filistlar: “Dovudga moy surtilibdi. U butun Isroil xalqi ustidan shoh bo‘libdi” degan xabarni eshitishdi. Shundan keyin barcha Filist lashkari Dovudni qidirib jangga

otlandilar. Bundan xabar topgan Dovud ham o‘z lashkari bilan ularga qarshi jangga otlandi. 9 Filistlar kelib, Rafa vodiysini* talon–taroj qila boshladilar. 10 Dovud Xudodan:

— Filistlarga hujum qilaymi? Ularni qo‘limga berasanmi? — deb so‘radi*.

— Hujum qil! — deb javob berdi Egamiz Dovudga. — Ularni qo‘lingga beraman.

11 Shunday qilib, Dovud Baal–Perazimga borib, u yerda Filistlarni tor–mor qildi. Keyin shunday dedi:

— Suv to‘g‘ondan toshib, dalani bosgani singari, Xudo g‘animlarimni bosib, mening qo‘lim bilan ularni uloqtirib yubordi.

Shu sababdan bu yerga “Baal–Perazim”* degan nom berildi. 12 Filistlar o‘sha yerda xudolarining tasvirlarini tashlab qochgan edilar, Dovud ularni yondirib yuborishni buyurdi.

13 Ko‘p o‘tmay Filistlar vodiyga qaytib kelib, u yerlarni yana talon–taroj qila boshladilar. 14 Dovud tag‘in Xudoning xohish–irodasini so‘radi. Xudo esa unga shunday javob berdi:

— Sen ularning old tomonidan hujum qilma. Ularni aylanib o‘tgin–da, mumiyo daraxtlari tomondan yaqinlashib bor. 15 Mumiyo daraxtlari tepasida Mening qadamim tovushlarini eshitganing zahoti ularga hujum qil. O‘shanda Men Filist lashkarini yo‘q qilish uchun sening qarshingdan chiqqan bo‘laman.

16 Dovud Xudo amr berganiday qilib, Givondan Gezer shahrigacha bo‘lgan joylarda Filistlar lashkarini tor–mor qildi. 17 Dovudning dong‘i hamma yurtlarga taraldi. Egamiz hamma xalqlarni undan qo‘rqadigan qilib qo‘ydi.

15–BOB

Ahd sandig‘ini olib kelishga tayyorgarlik

1 Dovud o‘zi uchun Dovud qal’asida uylar barpo qildi. Xudoning Sandig‘i uchun ham joy tayyorlab, chodir qurdi. 2 Keyin u shunday amr berdi: “Xudoning Sandig‘ini faqat levilar ko‘tarib yursin. Zero, Egamiz O‘z Sandig‘ini ko‘tarib yurish uchun levilarni tanlagandir. Ularni O‘ziga abadiy xizmat qilish uchun tanlab olgandir.”

3 Dovud o‘zi tayyorlagan joyga Egamizning Sandig‘ini olib kelish uchun jamiki Isroil xalqini Quddusda to‘pladi. 4 So‘ngra quyidagi Horun naslini va levilarni yig‘di:

5 Qohot naslidan — urug‘boshi Uriyol va u bilan birga uning 120 nafar qarindoshi,
6 Marori naslidan — urug‘boshi Osoyoh va u bilan birga 220 nafar qarindoshi,
7 Gershon naslidan — urug‘boshi Yo‘el va u bilan birga 130 nafar qarindoshi,
8 Elizofon naslidan — urug‘boshi Shamayo va u bilan birga 200 nafar qarindoshi,
9 Xevron naslidan — urug‘boshi Eliyol va u bilan birga 80 nafar qarindoshi,
10 Uziyol naslidan — urug‘boshi Ominadav va u bilan birga 112 nafar qarindoshi.

11 Dovud ikkala ruhoniyni — Zodo‘x bilan Abuatarni, levilardan Uriyol, Osoyoh, Yo‘el, Shamayo, Eliyol va Ominadavni chaqirib, 12 ularga dedi: “Sizlar Levi qabilasining urug‘boshilarisiz. Shunday ekan, Isroil xalqining Xudosi — Egamizning Sandig‘ini men tayyorlagan joyga olib kela olishingiz uchun o‘zlaringizni va levi birodarlaringizni poklanglar*. 13 Oldingi safar Sandiqni levilar olib kelmagani uchun Egamiz Xudo bizdan

qattiq g‘azablangan edi*. Ha, biz Undan Sandiqni qanday olib kelishimiz kerakligini so‘ramagan edik.”

14 Ruhoniylar va levilar Isroil xalqining Xudosi — Egamizning Sandig‘ini olib kelish
uchun o‘zlarini pokladilar. 15 Ular Egamizning Muso orqali bergan amriga muvofiq*,
Xudoning Sandig‘ini xodalar bilan yelkalariga ortib, ko‘tarib ketdilar.

16 Bulardan tashqari, Dovud Levi qabilasining urug‘boshilariga, qarindoshlaringiz
orasidan sozandalarni tayinlang, deb buyurgan edi. Ular arfa, lira va zillarni chalib, bu
musiqa asboblarining jo‘rligida shodiyona qo‘shiqlar aytishlari kerak edi. 17 Levilar
Marori urug‘idan quyidagi sozandalarni tayinlagan edilar: Yo‘el o‘g‘li Xaman, Barxiyo
o‘g‘li Osif va Qushayo o‘g‘li Etxan. 18 Ularning yordamchilari qilib quyidagilar
tayinlangan edi: Zakariyo, Yaziyol*, Shamiromo‘t, Yoxiyol, Unno, Eliyob, Binayo, Masiyo,
Mattitiyo, Elifaleh, Mixniyo hamda darvozabonlar Obidadom va Yaviyol.
19 Sozandalardan Xaman, Osif va Etxan bronza zillar chalishlari kerak edi. 20 Zakariyo,
Aziyol, Shamiromo‘t, Yoxiyol, Unno, Eliyob, Masiyo va Binayo arfalarni chalishlari kerak
edi*. 21 Mattitiyo, Elifaleh, Mixniyo, Obidadom, Yaviyol va Ozaziyo esa sakkiz torli
liralarni chalib, kuy ijrosida yetakchilik qilishlari kerak edi.

22 Levilarning boshlig‘i Xonaniyo mohir sozanda bo‘lgani uchun uni qo‘shiqchilar
rahbari qilib tayinlagan edilar. 23-24 Ahd sandig‘ini qo‘riqlash uchun Barxiyo, Elqana,
Obidadom va Yoxiyo tayinlangan edilar. Ruhoniylar Shabaniyo, Yoshafat, Natanil,
Emosay, Zakariyo, Binayo va Eliazar Xudoning Sandig‘i oldida karnaylar chalib
borishlari kerak edi.

Ahd sandig‘i Quddusga keltiriladi

25 Dovud, Isroil oqsoqollari va mingboshilar Egamizning Ahd sandig‘ini
Obidadomning uyidan olib kelish uchun katta tantana bilan ketdilar. 26 Ahd sandig‘ini
ko‘tarib kelayotgan levilarga Xudoning O‘zi yordam berdi. Shu sababdan ular yettita
buqa va yettita qo‘yni qurbonlik qildilar. 27 Sandiqni ko‘tarib kelayotgan barcha levilar,
qo‘shiqchilar va qo‘shiqchilar rahbari Xonaniyo singari, Dovud ham mayin zig‘irdan
to‘qilgan rido kiyib olgan edi. Dovud ridodan tashqari ruhoniylarning muqaddas
libosini* ham kiygan edi. 28 Shunday qilib, butun Isroil xalqi sevinchli xitoblar bilan, arfa
va lira kuylari hamda burg‘u, karnay, zillar sadolari ostida Egamizning Ahd sandig‘ini
olib keldi.

29 Ular Egamizning Sandig‘ini Dovud qal’asiga olib kirishayotganda, Shoulning qizi
Mixal* derazadan qarab turgan edi. U sakrab o‘ynayotgan shoh Dovudni ko‘rdi–yu, o‘z
ko‘nglida uni past ko‘rdi.

16–BOB

1 Levilar Xudoning Sandig‘ini Dovud maxsus tayyorlagan chodirning ichkarisiga olib
kirib qo‘ydilar. Keyin Xudoga kuydiriladigan qurbonliklarni va tinchlik qurbonliklarini
keltirdilar. 2 Dovud qurbonliklar qilib bo‘lgandan keyin, Egamizning nomidan xalqni duo
qildi. 3 So‘ng Isroil jamoasidagi har bir odamga — erkagu ayolga, bir donadan gardish
non, bir hovuchdan xurmo* va bir hovuchdan mayiz* tarqatdi.

4 U levilardan ba’zilarini Egamizning Sandig‘i oldida xizmat qilish uchun tayinladi.
Ular Isroil xalqining Xudosi — Egamizni ulug‘lab, Unga shukronalar aytishlari va
madhiyalar kuylashlari kerak edi. 5 Osif ularning rahnamosi edi, uning yordamchilari esa

Zakariyo, Yaviyol, Shamiromo‘t, Yoxiyol, Mattitiyo, Eliyob, Binayo, Obidadom va Yaviyol
edilar. Ular arfa va lira cholg‘uvchilari, Osifning o‘zi zil cholg‘uvchisi, 6 ruhoniylar Binayo
bilan Yaxaziyol esa karnay cholg‘uvchilari bo‘lib, ular har kuni Xudoning Ahd sandig‘i
oldida musiqa asboblarini chalishlari kerak edi.

Dovudning shukrona qo‘shig‘i

7 O‘sha kuni Dovud birinchi marta Osif bilan uning qarindoshlari zimmasiga
Egamizga hamdu sanolar aytish mas’uliyatini yuklagan edi.

8 Egamizga shukur ayting, Unga sajda qiling,
Boshqa xalqlar orasida Uning ishlarini bildiring.
9 Tarannum qilib Uni, hamdu sano ila qo‘shiq ayting,
Uning jamiki ajoyib ishlarini so‘zlab bering.
10 Egamizning muqaddas nomi ila faxrlaning,
Egamizga yuz burganlarning qalbi shodlikka to‘lsin.
11 Qudratli Egamizga yuz buring!
Uning huzurida bo‘lishga intiling.
12-13 Ey sizlar, Egamizning quli Isroil* nasli,
Ey Yoqub o‘g‘illari — Egamizning tanlaganlari,
Egamiz qilgan ajoyibotlarini esda tuting,
Uning mo‘jizalarini, chiqargan hukmlarini unutmang.

14 U Egamiz Xudodir,
U butun yer yuzini adolatli hukm qiladi.
15 Shunday ekan, Uning ahdini doimo yodda tuting,
Minglab nasllar osha va’dasini unutmang.
16 Egamizning Ibrohim bilan qilgan ahdiga rioya qiling,
Is’hoqqa qasam ichib bergan va’dasiga sodiq qoling.
17 Egamiz bu ahdni Yoqubga berdi,
Ha, Isroil bilan abadiy ahd qilib shunday dedi*:
18 “Kan’on yurtini senga beraman,
Uni o‘zingga abadiy mulk qilib olasan.”

19 O‘sha vaqtda ularning soni kam edi,
Ha, juda kamchilik edilar.
Ular bu yurtga kelgindi edi.
20 Kezardi bir xalq orasidan boshqasiga,
Bir shohlikdan boshqa yurtga.
21 Egamiz hech kimga ularni ezishlariga yo‘l qo‘ymadi,
Ularni deb shohlarga tanbeh berdi.
22 Aytdiki: “Men tanlaganlarga tegmanglar,
Payg‘ambarlarimga* zarar keltirmanglar.”

23 Ey olam, Egamizni tarannum eting!
Har kuni Uning najotidan so‘ylang.
24 E’lon qiling elatlar orasida Uning shuhratini,

Jamiki xalqlar orasida Uning ajoyibotlarini.
25 Egamiz buyukdir, koʻp maqtovga loyiqdir,
Jamiki xudolardan U izzatlidir.
26 Zotan, xalqlarning hamma xudolari butlardir,
Egamiz esa samolarni yaratgandir.
27 Shuhratu ulugʻvorlik Uning huzuridadir,
Qudratu shodlik Uning maskanidadir.
28 Egamizga hamdlar ayting, ey zamin xalqlari!
Egamizning qudratiyu shuhratiga hamdlar oʻqing!
29 Egamizning sharafiga hamdlar oʻqing!
Nazrlar keltirib, Uning huzuriga kiring!
Muqaddas ulugʻvorlikka burkangan Egamizga sajda qiling!*
30 Ey zamin ahli, Uning oldida titrab turing!
Olam mustahkam oʻrnashgan, hech qachon tebranmaydi.
31 Samolar shod boʻlsin, zamin quvonsin,
Elatlar orasida aytishsin: “Egamiz Shohdir!”
32 Dengizu undagi hamma jonzot guvullasin.
Dalalaru undagi har narsa sevinch ila joʻshsin,
33 Oʻrmondagi daraxtlar shodlikdan qoʻshiq aytsin.
Egamiz oldida ular qoʻshiq aytar,
Ana, Zaminni boshqarmoq uchun U kelayotir.

34 Egamizga shukrona ayting, U yaxshidir!
Uning sodiq sevgisi abadiydir.
35 Yana shunday deb aytinglar:
“Ey najotkorimiz Xudo, bizlarni qutqar,
Bizni xalqlardan xalos qil,
Ularning orasidan toʻplab ol.
Oʻzing muqaddassan, Senga shukur aytaylik,
Madhga loyiq ishlaring bilan faxrlanaylik.
36 Isroil xalqining Xudosi — Egamizga
To abad olqishlar boʻlsin.”

Shundan keyin jamiki xalq: “Omin!” deb Egamizga hamdu sanolar aytdi.

Dovud Quddus va Givonda sajda qilishni yoʻlga qoʻyadi

37 Dovud Osifni va uning qarindoshlarini Egamizning Ahd sandigʻi oldidagi doimiy xizmatga tayinladi. Ular har kuni oʻsha yerda oʻz vazifalarini bajarar edilar. 38 Ularga bu xizmatda Obidadom va uning oltmish sakkizta qarindoshi yordam berishlari kerak edi. Yodutun oʻgʻli Obidadom va Xoʻsax darvozabon edilar. 39 Dovud ruhoniy Zodoʻxni va uning ruhoniy qarindoshlarini Givondagi sajdagohda*, Egamizning Muqaddas chodirida xizmat qilishga tayinladi. 40 Ular, Egamizning Isroil xalqiga bergan qonuniga muvofiq, har kuni ertalab va kechqurun qurbongoh ustida qurbonliklar kuydirishlari lozim edi. 41 Ularning yonida Xaman, Yodutun va nomma–nom aytib tanlangan boshqa odamlar ham xizmat qilib, Egamizga: “Uning sodiq sevgisi abadiydir”, deya hamdu sano aytishlari kerak edi. 42 Xaman bilan Yodutun hamdu sanoning kuyi uchun mas’ul boʻlib, karnay, zil

va boshqa musiqa asboblarini chalishlari kerak edi. Yodutunning o‘g‘illari darvozabon qilib tayinlangan edi.

43 Shundan keyin hamma odamlar uylariga qaytib ketdilar, Dovud ham o‘z oilasini duo qilgani uyiga qaytdi.

17–BOB

Natan payg‘ambar shoh Dovudga xabar beradi

1 Dovud o‘z saroyiga o‘rnashib olgach, Natan payg‘ambarga dedi:

— Qarang, men sadr yog‘ochidan qurilgan uyda yashayapman, Egamizning Ahd sandig‘i esa chodirda turibdi.

2 — Ko‘nglingda nima bo‘lsa, shuni qilaver, Xudo sen bilan, — dedi Natan.

3 O‘sha kuni kechasi Natanga Egamizning so‘zi ayon bo‘ldi:

4 “Qulim Dovudning oldiga borgin–da, unga shu gaplarni yetkaz: «Egam shunday demoqda: istiqomat qilishim uchun uyni Menga sen qurmaysan. 5 Isroil xalqini Misrdan olib chiqqanimdan to shu kungacha biror uyda yashagan emasman. U yerdan–bu yerga ko‘chib yurdim, chodirda maskan qildim. 6 Men hech qachon Isroil xalqining hakamlariga* shikoyat qilmadim. Xalqimga cho‘ponlik qilish vazifasini ularning zimmasiga yuklagan bo‘lsam–da, hech qachon ularning birortasiga: ‘Nima uchun Menga sadr daraxti yog‘ochidan uy qurib bermadingizlar?’ deb aytmadim.»

7 Endi qulim Dovudga ayt: «Sarvari Olam shunday demoqda: Men seni yaylovlardagi qo‘y suruvi orasidan tanlab olib, xalqim Isroilga hukmdor qildim. 8 Qayerga borsang, sen bilan bo‘ldim, hujum qilganingda, hamma g‘animlaringni yo‘q qildim. Endi sening nomingni olamdagi ulug‘ odamlarning nomi singari mashhur qilaman. 9-10 Xalqim Isroilga ilk hakamlarni tayinlaganimdan buyon vijdonsiz odamlar xalqimni ezib keldilar. Endi xalqim Isroil uchun bir yurt tayin etib, ularni o‘sha yerga o‘tqazaman. Ular o‘z yurtida istiqomat qilishadi, boshqa behalovat bo‘lishmaydi. Hamma g‘animlaringni senga bo‘ysundiraman. Men, Egang, sen uchun bir xonadon barpo etaman, deb aytmoqdaman. 11 Sen olamdan o‘tib, ota–bobolaring yoniga dafn qilinganingdan keyin ham, Men o‘g‘illaringdan birini, pushti kamaringdan bino bo‘lgan farzandingni shoh qilib, uning shohligini mustahkamlayman. 12 Menga atab uyni u quradi. Men esa uning taxtini to abad mustahkam qilaman. 13 Men unga ota bo‘laman, u esa Menga o‘g‘il bo‘ladi. Men sendan oldingi shohni marhamatimdan mahrum qilgan edim. Lekin o‘g‘lingdan hech qachon marhamatimni darig‘ tutmayman. 14 Men uni O‘z xonadonim va shohligim ustiga abadiy o‘tqazaman, uning taxti to abad mustahkam bo‘ladi.»”

15 Xudo ayon qilganlarning hammasini Natan Dovudga aytdi.

Dovud shukrona aytib ibodat qiladi

16 Shundan keyin shoh Dovud Egamizning huzurida o‘tirib*, shunday ibodat qildi:

“Ey Parvardigor Egam! Men kim bo‘libman, xonadonim nima bo‘libdiki, Sen meni bu qadar ulug‘lading?! 17 Buning ustiga, ey Xudo, Sen kelajak zamonda yuz

beradigan voqealarni xabar qilding. Bu qulingning xonadoni uchun koʻp vaʼda
berding. Nazaringda meni ulugʻ odamday bilding*, ey Parvardigor Egam! 18 Sen
bu qulingni shuhratga erishtirding, Senga bundan ortiq nima ham deya olardim?!
Axir, bu qulingni bilasan–ku. 19 Ey Egam, Sen bu qulingning haqi–hurmati uchun
Oʻz xohishingga muvofiq, shunday ulugʻvor ish qilding. Bu buyuk vaʼdalaringni
bizga ayon qilding.
20 Senga oʻxshagan boshqa xudo haqida hech qachon eshitmaganmiz. Sening
aslo oʻxshashing yoʻq. Ey Egam, Sendan oʻzga Xudo yoʻq! 21 Xalqing Isroilga
oʻxshashi yoʻq! Ey Xudoyim, boshqa qaysi xalqni Sen qullikdan xalos qilib,
Oʻzingning xalqing qilding?! Sen Oʻz xalqingni Misrdan olib chiqib, butun olamga
shuhratingni yoyding. Buyuk va ajoyib ishlaring orqali xalqing oldidan begona
xalqlarni quvding. 22 Xalqing Isroilni to abad Oʻzingning xalqing qilding. Ey Egam,
Sen ularning Xudosi boʻlding.
23 Ey Egam! Bu qulingga va uning xonadoniga qarata aytgan soʻzingda to abad
tur, bergan vaʼdangni bajar, 24 toki odamlar, Sarvari Olam — Isroil xalqining
Xudosi ekan, deb nomingni to abad maqtab yursinlar. Ha, quling Dovudning
xonadonini Oʻzing har doim mustahkam qilgin. 25 Zotan, Sen, ey Xudoyim, bu
qulingga, sening xonadoningni barpo etaman, deb ayon etgansan! Shu sababdan
bu quling Senga ibodat qilishga jurʼat etdi. 26 Ey Egam! Sen Xudosan. Sen bu
qulingga ana shunday ezgu narsalarni vaʼda qilgansan. 27 Agar Oʻzing maʼqul
koʻrsang, bu qulingning xonadoniga marhamat qilgin, toki Sening huzuringda to
abad tursin. Zotan, Sen marhamat qilgan xonadon, ey Egam, to abad marhamatga
sazovor boʻlgʻay.”

18–BOB

Dovudning jangdagi gʻalabalari

1 Birmuncha vaqt oʻtgach, Dovud yana Filistlarga hujum qilib, ularni magʻlub qildi.
Gat shahri* va uning atrofidagi qishloqlarni Filistlardan tortib oldi.
2 Soʻng Moʻab xalqini ham magʻlub qildi. Moʻab xalqi Dovudga qaram boʻlib, oʻlpon
toʻlaydigan boʻlishdi.
3 Zoʻvo* shohi Hadadzar Furot daryosi boʻylariga yurish qilib, oʻsha yerlarda oʻz
hokimiyatini oʻrnatmoqchi boʻlgan bir paytda Dovud unga hujum qildi. Dovud
Hadadzarni Xomat shahri yonida tor–mor etdi. 4 Hadadzarning 1000 ta jang aravasini,
7000 otliq va 20.000 piyoda sipohini asirga oldi. Oʻzining 100 ta jang aravasi uchun
kerakli otlarni qoldirib, boshqa hamma otlarni mayib qildi.
5 Damashqdagi Oram xalqi Zoʻvo shohi Hadadzarga yordamga kelgan edi, Dovud
ulardan 22.000 kishini oʻldirdi. 6 Soʻng Damashqdagi Oram xalqining shaharlariga
oʻzining qoʻnolgʻalarini joylashtirdi. Oram xalqi ham Dovudga qaram boʻlib, oʻlpon
toʻlaydigan boʻldi. Shunday qilib, Dovud qayerga bormasin, Egamiz uni zafarga
erishtirdi.
7 Dovud Hadadzarning aʼyonlari koʻtarib yuradigan oltin qalqonlarni qoʻlga kiritib,
Quddusga keltirdi. 8 Yana Hadadzarning qoʻli ostidagi shaharlari boʻlgan Tivxat va
Xundan koʻp bronza olib keldi. Keyinchalik Sulaymon bu bronzadan hovuz, ustunlar va
har xil ashyolar yasattirdi*.

9 Xomat* shohi To‘ax*: “Dovud Hadadzarning butun lashkarini mag‘lub qilibdi”
degan xabarni eshitib qoldi. 10 To‘ax shoh Dovudning huzuriga o‘g‘li Yoramni* yuborib,
qutladi, jangda Hadadzardan g‘olib kelgani uchun Dovudni olqishladi. To‘ax Hadadzar
bilan uzoq vaqtdan beri urishib kelardi. U Dovudga oltin, kumush, bronza idishlarni
tortiq qilib yubordi. 11 Shoh Dovud bu in’omlarni boshqa yurtlardan — Edom, Mo‘ab,
Ommon, Filist va Omolekdan tortib olib kelgan oltinu kumushlar bilan birga Egamizga
nazr qildi.
12 Zeruya o‘g‘li Abushay Tuz vodiysida* Edom xalqidan 18.000 kishini halok qildi.
13 U Edom yurtiga* o‘z qo‘nolg‘alarini joylashtirdi. Edom xalqi Dovudga qaram bo‘ldi.
Dovud qayerga bormasin, Egamiz uni zafarga erishtirdi.
14 Dovud butun Isroilda shohlik qilar ekan, xalqini odillik bilan boshqarardi.
15 Zeruya o‘g‘li Yo‘ab — lashkarboshi, Oxilud o‘g‘li Yohushafat mushovir* edi. 16 Oxitob
o‘g‘li Zodo‘x bilan Abuatar o‘g‘li Oximalek* — ruhoniy, Sarayo* mirza edi. 17 Yohayido
o‘g‘li Binayo Xaretlik va Palatlik qo‘riqchilarning* boshlig‘i edi. Dovudning o‘g‘illari
saroyda yuksak lavozimdagi a’yonlar edilar.

19–BOB

Dovud Ommon va Oram xalqlarini mag‘lub qiladi

1 Oradan bir qancha vaqt o‘tgach, Ommon* shohi Naxosh olamdan o‘tib, o‘rniga o‘g‘li
Xanun shoh bo‘ldi. 2 Dovud: “Naxosh menga sodiq edi, men ham uning o‘g‘li Xanunga
sodiq bo‘layin”, deb ko‘nglidan o‘tkazdi. Shunday qilib, Dovud Xanunga otasining vafoti
munosabati bilan tasalli berish uchun o‘z elchilarini jo‘natdi.
Dovudning elchilari Xanunga tasalli bergani Ommon yurtiga borishgach, 3 Ommon
beklari Xanunga shunday deb o‘rgatishdi: “Dovud bu odamlarini otangiz hurmati uchun
jo‘natgan, deb o‘ylaysizmi? Yo‘q, bu elchilar sizning huzuringizga yomon niyat bilan
kelishgan, ular yurtni kuzatib, tekshirib, keyin qo‘lga kiritishmoqchi.” 4 Shu gapdan so‘ng
Xanun Dovudning elchilarini ushladi, ularning soqollarini qirdirib, kiyimlarini
sonlarigacha kestirib, orqaga qaytarib yubordi. 5 Elchilar qaytib ketishdi. Dovud bu
voqeani eshitdi–yu, elchilarini kutib olish uchun odamlar jo‘natdi. Elchilar juda
sharmandali ahvolda qolgan edilar. Shoh o‘sha elchilariga: “Soqolingiz o‘sguncha
Yerixoda qolinglar, keyin mening oldimga qaytib kelinglar”, deb ayttirib yubordi.
6 Ommon xalqi: “Endi Dovudning g‘azabiga duchor bo‘ldik”, deb o‘yladilar. Shuning
uchun Xanun va Ommon xalqi Oram–Naxrayimdan, Oram–Maxodan va Zo‘vo
shohliklaridan* jang aravalari va otliqlar yollash uchun 2000 pud* kumush yubordilar.
7 Xanun 32.000 ta jang aravasini va Maxo shahri shohini lashkari bilan yolladi. Maxo
shohi kelib, Midavo shahri* yonida qarorgoh qurdi. Ommon xalqi ham o‘z shaharlaridan
chiqib, jangga otlandi.
8 Dovud bu xabarni eshitdi–yu, lashkarboshi Yo‘ab boshchiligida qo‘riqchilarining
hammasini urushga safarbar qildi. 9 Ommon lashkari shahar* darvozasi oldida Dovudga
qarshi saf tortdi. Yordamga kelgan shohlar ham yalanglikda alohida saf tortdilar.
10 Yo‘ab g‘anim to‘dalari orqayu oldindan hujum qilayotganini ko‘rdi. U Isroilning
saralangan sipohlaridan tanlab oldi–da, Oram lashkariga qarshi saf torttirdi.
11 Qolganlariga esa ukasi Abushayni bosh qilib, Ommonlarga qarshi shay qilib qo‘ydi.
12 Yo‘ab Abushayga:

— Oram lashkari mendan ustun kelsa, sen yordamga kelasan, — dedi. — Bordi–yu, Ommonlar sendan baland kelsa, men yordamga boraman. 13 Bardam bo‘l! Xalqimiz va Xudoyimizning shaharlari uchun mardlarcha kurash olib boraylik. Egamizning xohish–irodasi bajo bo‘lsin.

14 Yo‘ab boshchiligidagi sipohlar Oram lashkariga qarshi tashlandilar. Oram lashkari esa ularning oldiga tushib qochib qoldi. 15 Ularning qochganini ko‘rgan Ommonlar ham Yo‘abning ukasi Abushaydan qochib, shaharga berkindilar. Shundan keyin Yo‘ab Quddusga qaytib ketdi.

16 Oram lashkari Isroil lashkaridan yengilganini anglab yetgach, xabarchilar yuborib, Furot daryosining narigi tomonida turgan o‘z lashkarini chaqirtirib keldilar. Ularga lashkarboshi qilib, shoh Hadadzar lashkarining qo‘mondoni Sho‘vaxni* tayinladilar. 17 Dovud bu voqeani eshitib, jamiki Isroil lashkarini yig‘di. Iordan daryosini kechib o‘tib, Oram lashkariga qarshi saf tortdi. Oram lashkari hujumga o‘tdi. 18 Ammo ular bu safar ham Isroil lashkarining oldiga tushib qochib qolishdi. Dovud Oram lashkarining 7000 nafar jang aravasi aravakashini va 40.000 nafar sipohini o‘ldirdi. Hadadzarning lashkarboshisi Sho‘vax ham Dovudning qo‘lidan halok bo‘ldi.

19 Shunday qilib, Hadadzarning qo‘li ostidagi shohlar Isroildan mag‘lub bo‘lib, Dovud bilan sulh tuzishga majbur bo‘lishdi. Ular Dovudga qaram bo‘lib qolishdi. Shundan keyin Oram xalqi Ommon xalqiga yordam berishdan bosh tortadigan bo‘ldi.

20–BOB

Dovud Rabba shahrini bosib oladi

1 Bahor boshlanib, shohlar urushga ketadigan payt ham bo‘ldi. Yo‘ab lashkarni jangga boshladi. Ular Ommon yurtini yakson qilib, Rabba shahrini* qamal qilishdi. Dovudning o‘zi Quddusda qolgan edi. Yo‘ab Rabbaga hujum qilib, shaharni qo‘lga kiritdi. 2 Dovud Rabbaga yetib borgach, Ommon shohining boshidagi tojini* oldi. Qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan, og‘irligi ikki pud* keladigan bu oltin toj Dovudning boshiga kiydirildi. Dovud shahardan katta miqdorda o‘lja ham yig‘di. 3 U shahar aholisini arra, cho‘kich va bolta bilan bajariladigan ishlarga majbur qildi. Dovud Ommon shaharlarining hammasida shu usulni qo‘lladi. Shundan keyin u jamiki lashkarini boshlab, Quddusga qaytib ketdi.

Filist pahlavonlariga qarshi jang

4 Shundan so‘ng Gezer shahrida Filistlar bilan yana urush chiqdi. Xushalik Sibaxay bu urushda Sof* degan odamni o‘ldirdi. Sof Rafa xalqidan* edi. Filistlar Isroil xalqiga bo‘yin egdilar.

5 Ko‘p o‘tmay Isroil lashkari bilan Filistlar o‘rtasida yana urush bo‘ldi. Yovir o‘g‘li Elxanon Gatlik* Go‘liyotning* ukasi Laxmini o‘ldirdi. Go‘liyot nayzasining sopi to‘quvchining dastgohi xodasiday kelardi.

6 So‘ngra yana Gat shahrida urush bo‘ldi. U yerda ham Rafa xalqidan devday bir odam bor edi. Uning qo‘l–oyoqlari olti barmoqli edi, hammasi bo‘lib yigirma to‘rtta barmog‘i bor edi. 7 O‘sha odam Isroil lashkarini haqorat qilgan edi, Yo‘natan uni o‘ldirdi. Yo‘natan Dovudning akasi Shimoning o‘g‘li edi.

8 Dovud va uning odamlari tomonidan o‘ldirilgan o‘sha Filistlar Gatlik bo‘lib, Rafa xalqidan edilar.

21–BOB

Dovud xalqni ro‘yxat qiladi

1 Shayton Isroilga qarshi qo‘zg‘alib, Dovudni Isroil xalqini sanab chiqishga undadi.
2 Dovud Yo‘abga va lashkarboshilarga shunday buyruq berdi:

— Boringlar, Bershebadan Dangacha bo‘lgan joylarni kezib, Isroil xalqini sanab chiqinglar. Menga natijasini olib kelinglar, toki qancha aholi borligini men bilayin.

3 Lekin Yo‘ab shunday dedi:

— Egam xalqning hozirgi sonini yuz karra ko‘paytirsin! Ey shoh hazratlari, bu xalqning hammasi sizning qullaringiz emasmi?! Nechun hazratim xalqni sanashga ehtiyoj sezib qoldilar?! Nechun Isroilga gunoh orttirmoqchilar?!

4 Lekin Yo‘ab so‘zidan shohning so‘zi ustun keldi. Yo‘ab borib, butun Isroil yurtini kezib chiqdi. So‘ngra Quddusga qaytib keldi. 5 Yo‘ab ro‘yxat natijasini Dovudga ma’lum qildi. Butun Isroilda jang qilishga qodir 1.100.000 odam, Yahudoda esa jang qilishga qodir 470.000 odam bor ekan. 6 Yo‘ab Levi qabilasi bilan Benyamin qabilasini ro‘yxatga kiritmagan edi, chunki shohning bu buyrug‘idan u tamom norozi edi.

7 Xalq ro‘yxatga olingani Xudoga ham ma’qul kelmadi. U Isroil xalqini jazoladi.
8 Shunda Dovud:

— Bu ishni qilib og‘ir gunohga botdim, aqlsizlarcha ish tutdim. O‘tinaman, bu qulingning gunohini kechir, — deb Xudoga iltijo qildi.

9 Dovudning xizmatida bo‘lgan valiy Gadga Egamiz dedi:

10 — Borib Dovudga shu gaplarni yetkaz: “Egam shunday deb aytmoqda: Men senga uchta jazoni taklif qilaman, shulardan bittasini tanla, keyin senga o‘sha jazoni yuboraman.”

11 Gad Dovudning huzuriga borib, unga shunday dedi:

— Egamiz aytmoqda: “Oladigan jazoingni o‘zing tanla. 12 Uch yil ocharchilik bo‘lsinmi? Yoki uch oy davomida dushmanlaring seni ta’qib qilib, qirsinmi? Yoki Egamning O‘zi senga uch kun davomida qilichi bilan hujum qilib, O‘z farishtasi orqali butun yurtni o‘latga giriftor qilsinmi?” Meni Yuborganga nima deb javob berayin?

13 — Men juda og‘ir ahvolda qoldim–ku, — dedi Dovud Gadga. — Nima bo‘lsa ham, odamzodning qo‘liga tushmayin. Mayli, Egamning O‘zi meni jazolasin, chunki U g‘oyat rahmdil.

14 Shunday qilib, Egamiz Isroil yurtiga o‘lat yubordi. Natijada Isroil xalqidan 70.000 odam nobud bo‘ldi. 15 Xudo Quddusni vayron qilish uchun bir farishtani yubordi. Lekin farishta shaharni vayron qilmoqchi bo‘lib turganda, Egamiz rahm qilib, balo–qazo jo‘natmaydigan bo‘ldi. Xalqni qirayotgan farishtaga:

— Bo‘ldi, bas! Yetadi! — deb amr berdi.

Egamizning farishtasi o‘sha paytda Quddusda — Yobus xalqidan bo‘lgan Aravno* ismli odamning xirmonida* turgan edi.

16 Dovud qarasa, Egamizning farishtasi yer bilan osmon o‘rtasida, qo‘lidagi yalang‘ochlangan qilichini Quddus tomonga cho‘zib turgan ekan. Shunda qanor kiygan* Dovud va oqsoqollar muk tushdilar.

17 — Xalqni sanashga amr bergan menman–ku, — deya yolvordi Xudoga Dovud. — Gunoh qilgan menman, men aybdorman! Qo‘yday beozor bu insonlar nima ayb qilibdi? Ey Egam Xudo, g‘azabingni menga va otam xonadoniga socha qol! Xalqingni esa o‘latdan

xalos et.

18 Shundan keyin Egamizning farishtasi Gadga buyurdi:

— Dovudga borib ayt: “Yobus xalqidan bo‘lgan Aravnoning xirmoniga borib, o‘sha yerda Egamizga atab bir qurbongoh qur.”

19 Gad borib, Dovudga Egamizning buyrug‘ini yetkazdi. Dovud uning aytganini qilib, xirmonga bordi. 20 O‘sha payti Aravno bilan uning to‘rt o‘g‘li bug‘doy yanchayotgan edilar. Birdaniga ular farishtani ko‘rib qoldilar. O‘g‘illarning to‘rtalasi ham qochib yashirinib oldilar. 21 Xuddi o‘sha zahoti Dovud ham xirmonga yaqinlashib qolgan edi. Aravno Dovudni ko‘rishi bilanoq xirmondan chiqib, yerga muk tushib ta’zim qildi.

22 Dovud Aravnoga aytdi:

— Menga xirmoningni to‘liq narxiga sot, men Egamga atab qurbongoh qurmoqchiman, toki o‘lat xalqdan daf bo‘lsin.

23 — Xirmonimni olavering, — deya javob berdi Aravno. — Shoh hazratlari nimani ma’qul ko‘rsalar, shuni qilsinlar. Mana, kuydirib qurbonlik qilishlari uchun ho‘kizlarimni beraman, o‘tin uchun xo‘ptirim* bor, don nazri uchun bug‘doyim ham tayyor. Hammasini olavering.

24 — Bo‘lmaydi! — dedi shoh Dovud. — Sendan bu narsalarni to‘liq narxiga sotib olaman. Sening mulkingni Egamga bag‘ishlamayman. Tekin tushgan qurbonliklarni Egamga kuydirib nazr qilmayman.

25 Dovud Aravnoga o‘sha yer uchun olti yuz oltin tanga* berdi. 26 Dovud u yerda Egamizga atab qurbongoh qurib, kuydiriladigan qurbonliklar va tinchlik qurbonliklarini atadi. So‘ngra Egamizga iltijo qildi. Egamiz uning iltijosiga javob berib, qurbongoh ustiga osmondan olov tushirdi.

27 Shundan so‘ng Egamiz farishtaga: “Qilichingni* qiniga qaytarib solib qo‘y!” deb amr bergan edi, farishta itoat etdi. 28 Dovud qilgan iltijosiga Egamizdan javob olganini ko‘rgach, Aravnoning xirmonida yana qurbonliklar keltirdi. 29 Muso sahroda yasagan Egamizning chodiri va qurbonlik kuydiriladigan qurbongoh o‘sha paytda Givondagi* sajdagohda joylashgan edi. 30 Ammo Dovud Xudoga iltijo qilgani u yerga bormagandi. Chunki u Egamizning farishtasi qilichidan qo‘rqqan edi.

22–BOB

1 Dovud shunday dedi: “Egamiz Xudoning uyi ham, Isroil xalqi qurbonliklar kuydiradigan qurbongoh ham shu yerda bo‘ladi.”

Ma’badni qurishga tayyorgarlik

2 Dovud Isroil yurtidagi barcha musofirlarni bir joyga yig‘dirdi. Ulardan ba’zilarini Xudoning uyini qurish uchun tosh kesib yo‘nadigan sangtaroshlar qilib tayinladi.
3 Dovud yog‘och darvozalar uchun oshiq–moshiq va mixlar yasagani ko‘p miqdorda temir saqlab qo‘ydi. Bronza ham shunchalik ko‘p ediki, hech kim uning hisobiga yeta olmasdi. 4 U behisob sadr yog‘ochini ham saqlab qo‘ydi. Sidonliklar va Tirliklar* ko‘p miqdorda sadr yog‘ochlari olib kelgan edilar. 5 Dovud ichida shunday deb aytar edi: “O‘g‘lim Sulaymon yosh, tajribasiz. Egamiz uchun quriladigan uy esa shu qadar salobatli bo‘lishi kerakki, uning dong‘i butun dunyoga yoyilib, barcha xalqlar orasida shuhrat topishi kerak. Shunday ekan, qurilish uchun hamma tayyorgarlikni o‘zim ko‘rib qo‘yaveray.” Shuning uchun Dovud o‘limidan oldin ko‘p miqdordagi ashyolarni

tayyorlab qo‘ygan edi.
6 So‘ngra Dovud o‘g‘li Sulaymonni chaqirtirib, Isroil xalqining Xudosi — Egamiz
uchun uy qurishni unga topshirdi.
7 — O‘g‘lim! — deb gapini boshladi Dovud, — Men Egam Xudoga atab bir uy qurish
niyatida edim. 8 Lekin Egam menga shunday so‘zini yuborgan edi: “Sen ko‘p jang qilib,
ko‘p qon to‘kding. Yer yuzida, Mening oldimda shu qadar ko‘p qon to‘kkaning uchun
Menga atab uyni sen qurmaysan. 9 Ammo sendan bir o‘g‘il tug‘iladi. O‘g‘ling
tinchliksevar odam bo‘ladi. Men uni atrofdagi hamma g‘animlardan xalos qilib,
tinchlikka erishtiraman. Uning ismi Sulaymon* bo‘ladi. Uning hukmronligi davrida
Isroilga tinchlik, osoyishtalik ato qilaman. 10 Menga atab uyni o‘sha o‘g‘ling quradi. U
Menga o‘g‘il bo‘ladi, Men unga ota bo‘laman. Uning Isroildagi shohlik taxtini to abad
mustahkam qilaman.” 11 Endi, o‘g‘lim, Xudo senga yor bo‘lsin. Uning uyini
qurayotganingda, Egang Xudo O‘z va’dasiga muvofiq, seni muvaffaqiyatga erishtirsin.
12 Egam senga idrok bilan fahm–farosat bersin, toki U Isroil hukmronligini senga
topshirganda, sen Egang Xudoning qonuniga rioya qila olgin. 13 Agar sen Egamizning
Isroil uchun Musoga amr etgan qonun–qoidalarini bitta qoldirmay bajarsang,
muvaffaqiyatga erishasan. Dadil va botir bo‘l. Qo‘rqma, vahimaga tushma. 14 Men
Egamizning uyi uchun ko‘p mashaqqatlar bilan 200.000 pud* oltin, 2.000.000 pud*
kumush, behisob miqdorda bronza va temir tayyorladim. Yana yog‘och va tosh ham
tayyorlab qo‘ydim. Sen bularga yana qo‘shishing lozim. 15 Sening ko‘p ishchilaring bor.
Ularning orasida turli hunarmandlar — tosh yo‘nuvchilar, tosh teruvchilar, duradgorlar,
16 oltin, kumush, bronza va temirga ishlov beradigan, behisob mohir ustalar bor. Qani,
ishga bel bog‘la. Xudo senga yor bo‘lsin.
17 Dovud Isroilning barcha yo‘lboshchilariga, Sulaymonga yordam beringlar, deb amr
qilib, shunday dedi: 18 “Egangiz Xudo sizlar bilan birga bo‘lib, sizlarga har tomondan
tinchlik ato etdi. Bizdan oldin bu yurtda yashagan xalqni U mening qo‘limga berdi. Ular
endi Egamizga va Uning xalqiga qaram bo‘lib qoldi. 19 Endi butun qalbingiz va yuragingiz
bilan Egangiz Xudoga intiling. Boringlar, Parvardigor Egamizga atab uy qurishni
boshlanglar, toki Ahd sandig‘i va muqaddas ashyolar o‘sha yerda saqlanadigan bo‘lsin.”

23–BOB

1 Dovud rosa keksayib, umri oxirlab qolgach, o‘g‘li Sulaymonni Isroil ustidan shoh
qildi.

Levilar va ularning vazifalari

2 Dovud Isroilning hamma yo‘lboshchilarini, ruhoniylarini va levilarni to‘pladi. 3 U
o‘ttiz va undan yuqori yoshdagi levilarni hisobladi. Ularning jami 38.000 erkak chiqdi.
4 Shunda Dovud aytdi: “Bulardan 24.000 nafari Egamizning uyidagi ishlar uchun mas’ul
bo‘ladi, 6000 nafari amaldorlar va hakamlar bo‘lib xizmat qiladi, 5 4000 nafari
darvozabon bo‘ladi, qolgan 4000 nafari esa men yasattirgan musiqa asboblarini chalib,
Egamizni madh qiladi.”
6 Dovud levilarni urug‘lariga ko‘ra, Gershon, Qohot va Marori guruhlariga bo‘ldi.

Gershon nasli

7 Gershonning Lubnax* va Shimax degan ikki o‘g‘li bor edi.
8 Lubnaxning uchta o‘g‘li bo‘lib, to‘ng‘ichi Yoxiyol, o‘rtanchasi Zatom va

kenjasi Yo‘el edi.

9 Ular Lubnax naslining urug‘boshilari edilar. Shimaxning Shalumo‘t, Xaziyol
va Xaron ismli uch o‘g‘li bor edi.

10-11 Keyinchalik Shimax yana to‘rt o‘g‘il ko‘rdi, ularning tartibi quyidagicha
edi: Yaxat, Zizo, Yoush va Bariyo. Yoush bilan Bariyoning o‘g‘illari kam bo‘lgani
uchun ular bitta xonadon hisoblanardilar.

Qohot nasli

12 Qohotning to‘rtta o‘g‘li bo‘lib, ularning ismlari Imrom, Izxor, Xevron va
Uziyol edi.

13 Imromning o‘g‘illari Horun va Muso edi. Horun Xudoga bag‘ishlangan
bo‘lib, eng muqaddas ashyolar uchun mas’uliyat to abad uning va uning nasli
zimmasiga yuklangan edi. Ular Egamizning huzurida qurbonliklar keltirishlari,
Unga xizmat qilishlari va to abad Uning nomidan xalqni duo qilishlari kerak edi.
14 Xudoning odami Musoga kelsak, uning o‘g‘illari Levi qabilasining bir qismi
hisoblanardi.

15 Musoning Gershom va Eliazar degan ikki o‘g‘li bor edi.

16 Gershomning o‘g‘illari orasida Shavuvol to‘ng‘ichi edi.

17 Eliazarning to‘ng‘ich farzandi Raxaviyo edi. Eliazarning undan bo‘lak
o‘g‘illari bo‘lmasa–da, Raxaviyoning o‘g‘illari nihoyatda ko‘p edi.

18 Qohotning ikkinchi o‘g‘li Izxor ham o‘g‘illar ko‘rgan edi. Uning to‘ng‘ich
o‘g‘li Shalumit edi.

19 Qohotning uchinchi o‘g‘li Xevron to‘rt o‘g‘il ko‘rgan edi. To‘ng‘ich o‘g‘lining
ismi Yoriyo, keyingilariniki Emoriyo, Yaxaziyol va Yoxamom edi.

20 Qohotning kenja o‘g‘li Uziyolning ikki o‘g‘li bor edi: to‘ng‘ichi Mixo va
kenjasi Ishshiyo.

Marori nasli

21 Marorining Maxli va Mushi degan ikkita o‘g‘li bor edi.

Maxlining Elazar va Kish ismli ikkita o‘g‘li bor edi. 22 Elazar o‘g‘il ko‘rmay o‘tib
ketdi. Undan faqat qizlar tug‘ildi. Uning qizlari o‘zlarining amakivachchalari —
Kishning o‘g‘illariga turmushga chiqdilar.

23 Mushining Maxli, Eder va Yorimo‘t ismli uch o‘g‘li bor edi.

24 Xullas, levilarning nomma–nom ro‘yxatga kiritilgan avlodlari, ularning urug‘ va
xonadonlari shulardan iborat edi. Yigirma va undan yuqori yoshdagi levilar Egamizning
uyidagi xizmatga tayinlangan edilar.

25 Dovud shunday degan edi: “Isroil xalqining Xudosi — Egamiz O‘z xalqiga tinchlik
ato qildi. Endi U Quddusda abadiy istiqomat qiladi. 26 Shunday ekan, bundan buyon
levilar Muqaddas chodirni yoki unda ishlatiladigan ashyolarni ko‘tarib yurishlari shart
emas.” 27 Dovudning oxirgi farmoniga ko‘ra, yigirma va undan yuqori yoshdagi levilar
ro‘yxatga olingan edilar.

28 Levilarning vazifasi Egamizning uyidagi xizmatda Horun nasliga yordam berish
edi. Bunga: hovli va yon xonalarga mas’ul bo‘lish, muqaddas ashyolarni poklash va
Egamizning uyidagi har qanday boshqa yumushlarni bajarish vazifalari kirar edi.
29 Shuningdek, levilar Egamiz huzuridagi xontaxta ustiga qo‘yiladigan nonlar, don nazri

uchun sifatli un, xamirturushsiz chalpaklar, pishirib tayyorlanadigan nazrlar, zaytun moyi aralashtirilgan nazrlar, nazrlarning og‘irligi, soni va hajmi uchun mas’ul edilar.
30 Har kuni ertalab va kechqurun ular Ma’badda Egamizga shukronalar aytib, hamdu
sanolar kuylashlari kerak edi. 31 Shabbat kunlari, yangi oy va boshqa belgilangan
bayramlarda qurbonliklar kuydirilganda ham shukronalar aytib, hamdu sanolar kuylash
ularning zimmasida edi. Egamizning huzurida doimo xizmat qilayotgan levilarning soni
qoidaga muvofiq bo‘lishi shart edi.
32 Demak, levilar Uchrashuv chodiri* va Ma’bad uchun mas’ul bo‘lib, Egamizning
uyida xizmat qilgan o‘z qarindoshlari — Horun nasliga yordam berishlari kerak edi.

24–BOB

Ruhoniylar va ularning vazifalari

1 Horun nasli xizmat uchun guruh–guruhlarga bo‘lindi. Horunning Nadov, Abihu,
Elazar va Itamar ismli to‘rt o‘g‘li bor edi. 2 Lekin Nadov bilan Abihu otalaridan oldin,
o‘g‘il ko‘rmasdan vafot etganlari uchun, Elazar bilan Itamar ruhoniy bo‘ldilar. 3 Shoh
Dovud Horun naslini, bajaradigan vazifalariga ko‘ra, guruhlarga bo‘ldi. Unga bu ishda
Elazar naslidan bo‘lgan Zodo‘x va Itamar naslidan bo‘lgan Oximalek yordam berdilar.
4 Elazar naslidagi urug‘boshilarning soni Itamar naslinikiga qaraganda ko‘proq bo‘lgani
uchun, Elazar nasli 16 guruhga, Itamar nasli esa 8 guruhga bo‘lindi. 5 Ma’badda Xudoga
xizmat qiladigan malakali rahnamolarning ba’zilari Elazar naslidan, boshqalari esa
Itamar naslidan edilar. Shu sababdan tarafkashlikka yo‘l qo‘ymaslik uchun bajaradigan
vazifalari ularga qur’a bo‘yicha* bo‘lib berildi.
6 Elazar va Itamar nasllari uchun navbatma–navbat qur’a tashlandi. Levilardan
bo‘lgan kotib Natanil o‘g‘li Shamayo qur’a natijalarini qayd etib turdi. Shoh, uning
a’yonlari, ruhoniy Zodo‘x, Abuatar o‘g‘li Oximalek hamda ruhoniy va levi
xonadonlarining urug‘boshilari bunga shohid bo‘ldilar.

7 Birinchi qur’a Yohayirivga tushdi.
Ikkinchi qur’a Yodayoga tushdi.
8 Uchinchi qur’a Xarimga tushdi.
To‘rtinchi qur’a Sayo‘rimga tushdi.
9 Beshinchi qur’a Malkiyoga tushdi.
Oltinchi qur’a Miyominga tushdi.
10 Yettinchi qur’a Xakko‘zga tushdi.
Sakkizinchi qur’a Abiyoga tushdi.
11 To‘qqizinchi qur’a Yeshuvaga tushdi.
O‘ninchi qur’a Shaxaniyoga tushdi.
12 O‘n birinchi qur’a Eliashabga tushdi.
O‘n ikkinchi qur’a Yaximga tushdi.
13 O‘n uchinchi qur’a Xuppaga tushdi.
O‘n to‘rtinchi qur’a Eshebovga tushdi.
14 O‘n beshinchi qur’a Bildaxga tushdi.
O‘n oltinchi qur’a Immarga tushdi.
15 O‘n yettinchi qur’a Xazirga tushdi.

O‘n sakkizinchi qur’a Xapizezga tushdi.
16 O‘n to‘qqizinchi qur’a Patixiyoga tushdi.
Yigirmanchi qur’a Yoxizqiyolga tushdi.
17 Yigirma birinchi qur’a Yoxinga tushdi.
Yigirma ikkinchi qur’a Gamulga tushdi.
18 Yigirma uchinchi qur’a Daloyoga tushdi.
Yigirma to‘rtinchi qur’a Maziyoga tushdi.

19 Har bir guruh Egamiz uyidagi o‘z vazifasini ularning bobokaloni Horun tomonidan belgilangan ko‘rsatmalar asosida bajarishi lozim edi. Bu ko‘rsatmalarni Horunga Isroil xalqining Xudosi — Egamiz bergan edi.

Levi urug‘boshilarining ro‘yxati

20 Levidan bino bo‘lgan boshqa urug‘boshilar quyidagilar edi:

Imrom naslidan — Shavuvol*,
Shavuvol naslidan — Yoxidayo,
21 Raxaviyo naslidan — yo‘lboshchi Ishshiyo,
22 Izxor naslidan — Shalumit*,
Shalumit naslidan — Yaxat,
23 Xevron naslidan — to‘ng‘ichi Yoriyo, ikkinchisi — Emoriyo*, uchinchisi — Yaxaziyol va to‘rtinchisi — Yoxamom,
24 Uziyol naslidan — Mixo,
Mixo naslidan — Shomir,
25 Mixoning ukasi — Ishshiyo,
Ishshiyo naslidan — Zakariyo,
26-27 Marori naslidan — Maxli, Mushi va Yaziyo,
Yaziyo naslidan — Sho‘ham, Zakkur va Ibri,
28-29 Maxli naslidan — Elazar va Kish. Elazarning o‘g‘illari yo‘q edi.
Kish naslidan — Yaraxmal*,
30 Mushi naslidan — Maxli, Eder va Yarimo‘t.

Levi nasli, urug‘lari bo‘yicha, ana shulardan iborat edi.
31 Ular ham Horun nasli singari, qur’a tashlab, bajaradigan vazifalarini aniqlab olgan edilar. Shoh Dovud, Zodo‘x, Oximalek, ruhoniy va levi xonadonlarining urug‘boshilari bunga shohid edilar. Katta o‘g‘il xonadoni, kichik o‘g‘il xonadoni qatori, qur’a tashladi.

25–BOB

Ma’bad sozandalari va ularning vazifalari

1 Dovud bilan levi yo‘lboshchilari levilarning Osif, Xaman va Yodutun urug‘larini sozandalar qilib tayinladilar. Ularning vazifasi lira, arfa va zillar chalib, bashorat qilish edi. Sozandalarning ro‘yxati va ularning bajaradigan vazifasi quyidagicha edi:

2 Osifning to‘rt o‘g‘li Zakkur, Yusuf, Nataniyo va Osorilax otasining rahbarligi ostida bo‘lib, shohning buyrug‘i bilan bashorat qilishar edi.
3 Yodutunning olti o‘g‘li Gadaliyo, Zari, Yeshayo, Shimax*, Xashaviyo va

Mattitiyo otasining rahbarligi ostida bo‘lib, ular lira jo‘rligida bashorat qilishar, Egamizga shukronalar va hamdu sanolar aytishar edi.
4 Xamanning Bukkiyox, Mattaniyo, Uziyol, Shavuvol, Yarimo‘t, Xanoniyo,
Xonin, Eliota, Gidalti, Romamtizer, Yoshbaxasha, Malo‘ti, Xo‘tir va Maxaziyo‘t
ismli o‘n to‘rtta o‘g‘li bor edi. 5 Bularning hammasi shoh xizmatida bo‘lgan valiy
Xamanning o‘g‘illari edilar. Xudo O‘z va’dasiga binoan, Xamanni siylab, unga o‘n
to‘rtta o‘g‘il bergan edi. Uning uch qizi ham bor edi. 6 O‘g‘illarning hammasi
otasining rahbarligi ostida zil, arfa va liralarni chalib, Egamizning uyida sozanda
bo‘lib xizmat qilishar edi. Osif, Yodutun va Xaman bevosita shohning
buyruqlariga bo‘ysunishardi.

7-9 Bu sozandalar qarindoshlari bilan birga 288 kishini tashkil qilib, Egamizning huzurida yuksak mahorat bilan musiqa chalishar edi. Ular xonadonlariga ko‘ra, 24 guruhga bo‘lindi. Har bir guruh 12 kishidan tashkil topgan bo‘lib, bir rahbarga ega edi. Ularning hammasi — yoshu qari, ustozu shogird o‘z vazifalarini bilib olish uchun qur’a tashlashdi*.

Birinchi qur’a Osif xonadonidagi Yusuf va uning guruhiga tushdi.
Ikkinchi qur’a Gadaliyo va uning guruhiga tushdi.
10 Uchinchi qur’a Zakkur va uning guruhiga tushdi.
11 To‘rtinchi qur’a Zari* va uning guruhiga tushdi.
12 Beshinchi qur’a Nataniyo va uning guruhiga tushdi.
13 Oltinchi qur’a Bukkiyox va uning guruhiga tushdi.
14 Yettinchi qur’a Osorilax* va uning guruhiga tushdi.
15 Sakkizinchi qur’a Yeshayo va uning guruhiga tushdi.
16 To‘qqizinchi qur’a Mattaniyo va uning guruhiga tushdi.
17 O‘ninchi qur’a Shimax va uning guruhiga tushdi.
18 O‘n birinchi qur’a Uziyol* va uning guruhiga tushdi.
19 O‘n ikkinchi qur’a Xashaviyo va uning guruhiga tushdi.
20 O‘n uchinchi qur’a Shavuvol* va uning guruhiga tushdi.
21 O‘n to‘rtinchi qur’a Mattitiyo va uning guruhiga tushdi.
22 O‘n beshinchi qur’a Yarimo‘t va uning guruhiga tushdi.
23 O‘n oltinchi qur’a Xanoniyo va uning guruhiga tushdi.
24 O‘n yettinchi qur’a Yoshbaxasha va uning guruhiga tushdi.
25 O‘n sakkizinchi qur’a Xonin va uning guruhiga tushdi.
26 O‘n to‘qqizinchi qur’a Malo‘ti va uning guruhiga tushdi.
27 Yigirmanchi qur’a Eliota va uning guruhiga tushdi.
28 Yigirma birinchi qur’a Xo‘tir va uning guruhiga tushdi.
29 Yigirma ikkinchi qur’a Gidalti va uning guruhiga tushdi.
30 Yigirma uchinchi qur’a Maxaziyo‘t va uning guruhiga tushdi.
31 Yigirma to‘rtinchi qur’a Romamtizer va uning guruhiga tushdi.

26–BOB

Ma’bad darvozabonlari va ularning vazifalari

1 Ma’bad darvozasida xizmat qilish uchun quyidagi levilar tayinlangan edi:

Ko‘rax naslidagi Osif xonadonidan — Kori o‘g‘li Mashalmiyo.
2 Mashalmiyoning yetti o‘g‘li bor edi: to‘ng‘ichi — Zakariyo, ikkinchisi — Yodiyol, uchinchisi — Zabadiyo, to‘rtinchisi — Yatniyol, 3 beshinchisi — Elam, oltinchisi — Yohuxanon va yettinchisi — Elixo‘nay.
4-5 Xudo Obidadomni barakalab, unga sakkiz o‘g‘il bergan edi: to‘ng‘ich o‘g‘li — Shamayo, ikkinchisi — Yohuzabad, uchinchisi — Yo‘x, to‘rtinchisi — Soxor, beshinchisi — Natanil, oltinchisi — Omiyol, yettinchisi — Issaxor va sakkizinchisi — Fullatay.
6 Obidadomning to‘ng‘ichi Shamayoning ham o‘g‘illari bor edi. Ular nihoyatda qobiliyatli bo‘lganlari uchun o‘zlarining ota xonadonida urug‘boshilar edilar.
7 Ularning ismlari O‘tnax, Rafail, Obid va Elzabad edi. Shamayoning qarindoshlari Elixu bilan Samaxiyo ham nihoyatda qobiliyatli edilar. 8 Obidadomning bu avlodi jami oltmish ikki kishini tashkil qilib, hammasi qobiliyatli, o‘z xizmatiga layoqatli edilar.
9 Mashalmiyoning o‘g‘illari va aka–ukalari o‘n sakkiz kishini tashkil qilib, hammasi qobiliyatli edilar.
10 Marori naslidan bo‘lgan Xo‘saxning to‘rt o‘g‘li bor edi. Uning Shimri degan o‘g‘li yo‘lboshchi edi. Shimri to‘ng‘ich o‘g‘il bo‘lmasa ham, otasi uni yo‘lboshchi qilgan edi. 11 Xo‘saxning ikkinchi o‘g‘li — Xilqiyo, uchinchisi — Tavaliyo va to‘rtinchisi Zakariyo edi. Xo‘sax xonadonining o‘n uch a’zosi Ma’bad darvozabonlari bo‘lib xizmat qilar edilar.

12 Darvozabonlar xonadonlari bo‘yicha guruhlarga bo‘lingan edilar. Ular Egamizning uyida xizmat qilayotgan boshqa levilar singari o‘z vazifalariga ega edilar. 13 Har bir xonadon katta–kichikligiga qaramay qur’a tashlab*, qo‘riqlaydigan darvozasini aniqlab oldi.
14 Sharq tomondagi darvoza uchun qur’a tashlanganda, qur’a Mashalmiyoga* tushdi. So‘ngra o‘g‘li Zakariyo uchun qur’a tashlandi, unga shimol tomondagi darvoza tushdi. Zakariyo dono maslahatchi edi. 15 Obidadom uchun qur’a tashlanganda, unga janub tomondagi darvoza tushdi. O‘g‘illari uchun qur’a tashlanganda, ularga omborxonani qo‘riqlash tushdi. 16 G‘arb tomondagi darvoza va yuqori yo‘l ustidagi Shallexet darvozasi uchun qur’a tashlanganda, qur’a Shupim bilan Xo‘saxga tushdi. Darvozabonlar o‘z xizmatini belgilangan vaqtda, ketma–ketlikda uzluksiz ravishda bajarishlari lozim edi.
17 Sharq tomondagi darvozada kuniga oltita darvozabon, shimol tomondagi darvozada to‘rtta, janub tomondagi darvozada ham to‘rtta darvozabon turardi. Shuningdek, ikkita omborxonada ikkitadan darvozabon turardi. 18 G‘arb tomondagi hovliga kelsak, yo‘lakda to‘rtta darvozabon, hovlining ichida esa ikkita darvozabon turardi.
19 Ko‘rax va Marori naslidan bo‘lgan darvozabonlarga mana shu qo‘riqchilik vazifasi topshirilgan edi.

Boshqa levilar va ularning vazifalari

20 Oxiyo boshchiligidagi boshqa levilar* Xudoning uyidagi xazinalar va nazr qilingan
hadyalar xazinalari uchun mas'ul edilar. 21 Gershon urug'idan bo'lgan Lubnax*
Yoxiyolning otasi edi. Lubnaxning naslidan bir necha urug'boshilar chiqdi.
22 Yoxiyolning o'g'illari Zatom bilan Yo'el Egamizning uyidagi xazinalar uchun mas'ul
edilar.
23 Imrom, Izxor, Xevron va Uziyol urug'lariga ham vazifalar taqsimlanib berildi.
24 Muso o'g'li Gershomning urug'idan Shavuvol Ma'badning bosh xazinaboni edi.
25 Gershomning ukasi Eliazarning nasli quyidagilar edi: Eliazarning o'g'li — Raxaviyo,
Raxaviyoning o'g'li — Yeshayo, Yeshayoning o'g'li — Yoram, Yoramning o'g'li — Zixri va
Zixrining o'g'li — Shalumo't. 26 Shalumo't va uning xonadoni Egamizga nazr qilingan
hadyalar xazinasi uchun mas'ul edi. Bu xazinada shoh Dovudning, urug'boshilar,
mingboshilar, yuzboshilar va lashkarboshilarning Xudoga nazr qilgan hadyalari
saqlanar edi. 27 Ular jangda qo'lga kiritgan o'ljaning bir qismini Egamizning uyini
ta'minlash uchun nazr qilardilar. 28 Shalumo't va uning xonadoni barcha hadyalar uchun
mas'ul edilar. Valiy Shomuil, Kish o'g'li Shoul, Nar o'g'li Abnur va Zeruya o'g'li Yo'ab nazr
qilgan hadyalar ham ularning nazorati ostida edi.
29 Izxor naslidan Xonaniyo va uning o'g'illari Isroil xalqi uchun ma'murlar va
hakamlar qilib tayinlandilar. Ular Ma'baddan tashqarida xizmat qilishardi.
30 Xevron naslidan Xashaviyo va uning 1700 nafar qobiliyatli qarindoshi ham
ma'murlar qilib tayinlandilar. Ular Iordan daryosining g'arb tomonidagi qabilalar uchun
mas'ul bo'lib, Egamizning va shohning xizmatiga oid masalalarni yechishar edi.
31 Xevron naslidagi Yoriyo, nasabnoma ma'lumotiga ko'ra, Xevron naslining
yo'lboshchisi edi. Dovud hukmronligining qirqinchi yilida nasabnomalarga oid barcha
yozma ma'lumotlar ko'rib chiqilgan edi. Shunda Giladdagi Yazir shahrida Xevron nasli
orasida qobiliyatli odamlar borligi aniqlandi. 32 Shoh Dovud Yoriyoni va uning 2700
nafar qobiliyatli qarindoshini ma'murlar qilib tayinladi. Ular Iordan daryosining sharq
tomonidagi Ruben, Gad va Manashe qabilasining yarmi uchun mas'ul bo'lib, Xudoning
va shohning xizmatiga oid barcha masalalarni hal qilishlari kerak edi.

27–BOB

Isroildagi harbiy tuzum

1 Quyida Isroil xalqining urug'boshilari, mingboshilari va yuzboshilarining,
shuningdek, ularning sardorlari ro'yxati berilgan. Bu sardorlar shohning xizmatida
bo'lib, har yili bir oy davomida vazifasini o'tayotgan harbiy qismlar uchun mas'ul edilar.
Har bir qism 24.000 odamdan tashkil topgan edi.

2 Birinchi oyda xizmat qiladigan qismning sardori Zabdiyol o'g'li Yoshuvam edi.
3 Yoshuvam Paraz naslidan edi.
4 Ikkinchi oyda xizmat qiladigan qismning sardori Oxo'va urug'idan bo'lgan
Do'do' edi. Do'do'ning o'ng qo'l yordamchisi Mixlo't edi.
5 Uchinchi oyda xizmat qiladigan qismning sardori Binayo edi. U ruhoniy
Yohayidoning o'g'li bo'lib, 6 "O'ttiz qahramon" orasidagi bahodir
jangchilardan biri edi. "O'ttiz qahramon"ning sardori ham ana shu Binayo*

edi. Binayoning o‘g‘li Omizabod qismning bosh qo‘mondoni edi.
7 To‘rtinchi oyda xizmat qiladigan qismning sardori Yo‘abning ukasi Osoyil edi.
Osoyildan keyin o‘g‘li Zabadiyo otasining o‘rnini egalladi.
8 Beshinchi oyda xizmat qiladigan qismning sardori Shamhut edi. U Yizro
urug‘idan edi.
9 Oltinchi oyda xizmat qiladigan qismning sardori Taxuvalik Ixesh o‘g‘li Ero edi.
10 Yettinchi oyda xizmat qiladigan qismning sardori Palonlik Xalez edi. U Efrayim
qabilasidan edi.
11 Sakkizinchi oyda xizmat qiladigan qismning sardori Xushalik Sibaxay edi.
Sibaxay Zerax urug‘idan edi.
12 To‘qqizinchi oyda xizmat qiladigan qismning sardori Onoto‘tlik Abuazar edi.
Abuazar Benyamin qabilasidan edi.
13 O‘ninchi oyda xizmat qiladigan qismning sardori Natufolik Maxray edi. Maxray
Zerax urug‘idan edi.
14 O‘n birinchi oyda xizmat qiladigan qismning sardori Piratonlik Binayo edi.
Binayo Efrayim qabilasidan edi.
15 O‘n ikkinchi oyda xizmat qiladigan qismning sardori Natufolik Xaled* edi. Xaled
O‘tniyol urug‘idan edi.

Isroil qabilalarining yo‘lboshchilari

16 Isroil qabilalarining yo‘lboshchilari quyidagilar edi:

Ruben qabilasining yo‘lboshchisi — Zixri o‘g‘li Eliazar,
Shimo‘n qabilasining yo‘lboshchisi — Maxo o‘g‘li Shafatiyo,
17 Levi qabilasining yo‘lboshchisi — Kamuvol o‘g‘li Xashaviyo,
Horun naslining yo‘lboshchisi — Zodo‘x,
18 Yahudo qabilasining yo‘lboshchisi — Dovudning akasi Elixu,
Issaxor qabilasining yo‘lboshchisi — Mikoyil o‘g‘li Omri,
19 Zabulun qabilasining yo‘lboshchisi — Obodiyo o‘g‘li Yishmayo,
Naftali qabilasining yo‘lboshchisi — Ozriyol o‘g‘li Yarimo‘t,
20 Efrayim qabilasining yo‘lboshchisi — Ozaziyo o‘g‘li Xo‘sheya,
G‘arbdagi Manashe qabilasining yarmiga yo‘lboshchi — Podiyo o‘g‘li Yo‘el,
21 Giladdagi Manashe qabilasining yarmiga* yo‘lboshchi — Zakariyo o‘g‘li Eddo,
Benyamin qabilasining yo‘lboshchisi — Abnur o‘g‘li Yasiyol,
22 Dan qabilasining yo‘lboshchisi — Yeroxam o‘g‘li Ozariyol.

Isroil qabilalarining yo‘lboshchilari ana shulardan iborat edi.
23 Dovud Isroil xalqini sanab chiqqanda, yigirma yoshdan pastini ro‘yxatga kiritmagan edi, chunki Egamiz: “Isroil xalqini osmondagi yulduzlar kabi ko‘paytiraman”, deb va’da bergan edi. 24 Zeruya o‘g‘li Yo‘ab xalqni sanashni boshlagandi–yu, lekin oxiriga yetkazmagandi*. Xalq sanalgani uchun Egamiz Isroilga g‘azabini sochgandi*. Shu sababdan bu sanoqning natijasi shoh Dovudning yilnomasiga kiritilmadi.

Shoh mulkini boshqaruvchilar

25 Odil o‘g‘li Ozmobit saroy xazinaboni edi.
Uzziyo o‘g‘li Yo‘natan esa qolgan hamma yerdagi — shaharlardagi, qishloqlardagi

va qal’alardagi xazinalar uchun mas’ul edi.
26 Xalub o‘g‘li Ezri yerga ishlov beradigan dehqonlar uchun mas’ul edi.
27 Ramalik Shimax uzumzorlar uchun mas’ul edi.
Shafomlik Zabdi sharob omborlari uchun mas’ul edi.
28 Gederlik Baalxanon Yahudo qir etaklaridagi zaytunzorlar va shikamora–
anjirzorlar* uchun mas’ul edi.
Yo‘sh zaytun moyi omborlari uchun mas’ul edi.
29 Sharonlik Shitray Sharon tekisligida boqiladigan podalar uchun mas’ul edi.
Adlay o‘g‘li Shofot vodiylarda boqiladigan podalar uchun mas’ul edi.
30 Ismoil urug‘idan Obil tuya podalari uchun mas’ul edi.
Mirono‘tlik Yoxidayo eshak podalari uchun mas’ul edi.
31 Hojar urug‘idan Yoziz qo‘y suruvlari uchun mas’ul edi.

Ana shularning hammasi shoh Dovud mulkini nazorat qilar edilar.

Dovudning shaxsiy maslahatchilari

32 Dovudning amakisi Yo‘natan donishmand odam bo‘lib, maslahatchi va tafsirchi edi. Xaxmo‘n o‘g‘li Yoxiyol shoh o‘g‘illarining murabbiysi edi. 33 Oxitofel shohning maslahatchisi edi. Orux urug‘idan Xushay shohning do‘sti edi. 34 Oxitofeldan keyin uning o‘rniga Binayo o‘g‘li Yohayido va Abuatar maslahatchi bo‘ldi. Yo‘ab shoh qo‘shinining lashkarboshisi edi.

28–BOB

Dovud Ma’badni qurish uchun ko‘rsatma beradi

1 Dovud Isroildagi hamma a’yonlarni — qabila yo‘lboshchilarini, shohga xizmat qiladigan harbiy qismlar sardorlarini, mingboshilarni, yuzboshilarni, shoh va shahzodalar mulkini va podalarini boshqaruvchilarni, saroy a’yonlarini, bahodir pahlavonlarni va boshqa hamma jangchilarni Quddusda to‘pladi.
2 Shoh Dovud ularning oldida turib, gapirdi:

“Birodarlarim, xalqim, gapimni eshitinglar! Men Xudoning oyoq kursisi bo‘lmish Egamizning Ahd sandig‘i* uchun bir oromgoh qurmoqchi edim. Qurilish uchun hamma tayyorgarlikni ham ko‘rib qo‘ygan edim. 3 Lekin Xudo: «Menga atab uyni sen qurmaysan, sen jang qilib, ko‘p qon to‘kding», — dedi.
4 Vaholanki, Isroil xalqining Xudosi — Egamiz butun otam xonadonidan meni tanlab oldi. Meni to abad Isroilning shohi qildi. U Yahudo qabilasini yetakchi qilib tanladi, Yahudo qabilasidan esa otamning xonadonini ravo ko‘rdi, otamning o‘g‘illari orasidan esa meni mamnuniyat ila butun Isroil ustidan shoh qildi.
5 Egamiz menga ko‘p o‘g‘illar berdi, hamma o‘g‘illarim orasidan Isroil shohi qilib Sulaymonni tanladi. Ha, Egamizning shohligi taxtiga u o‘tiradi. 6 Egamiz menga aytdi: «Men uchun uyni va hovlilarni quradigan o‘g‘ling Sulaymondir. Men uni O‘zimga o‘g‘il qilib tanladim, Men unga ota bo‘laman. 7 Agar u bugungiday, Mening amrlarimu qonunlarimga qat’iyat bilan rioya qilib yursa, uning taxtini to abad mustahkam qilaman.»
8 Shuning uchun endi Egamizning jamoasi Isroil xalqining ko‘zi o‘ngida va

Xudoyimizning guvohligida sizlarga aytayin: Egangiz Xudoning amrlarini bitta
qoldirmay bajaring. Ana shunda sizlar mana shu hosildor yurtga egalik qilasizlar,
bolalaringizga ham uni abadiy meros qilib qoldirasizlar.
9 Endi Sulaymon o‘g‘lim, otangning Xudosini tan olgin, butun onging bilan
sidqidildan Unga xizmat qilgin. Zotan, Egamiz har bir insonning yuragini sinaydi,
niyatu fikrlarimizni U biladi. Agar Uni izlasang, topasan. Agar Uni tark etsang, U
ham seni abadiy tashlab ketadi. 10 Gapimga quloq sol! Ma’bad qurish uchun
Egamiz seni tanlagan ekan, qani, dadil bo‘lib, ishga bel bog‘la!”

11 Dovud Ma’bad binolarining, omborxonalarining, boshqa xonalarining va Eng muqaddas xonaning, ya’ni gunohdan poklash joyining chizma loyihalarini o‘g‘li Sulaymonga berdi. 12 Shuningdek, Dovud Egamiz uyining hovlilari va atrofidagi xonalari, Xudo uyining xazinalari va nazr qilingan hadyalar saqlanadigan xonalari uchun ko‘nglidagi niyatlarini* aytdi. 13 Ruhoniylar va levilarning tuzumiga, ularning Egamizning uyida qilinadigan barcha xizmatlariga va xizmat paytida foydalaniladigan barcha ashyolarga oid ko‘rsatmalar berdi. 14 Xizmatda ishlatiladigan quyidagi idish va jihozlarni yasash uchun oltin va kumush vaznini belgilab berdi: 15 moychiroqlar va chiroqpoyalar, 16 muqaddas nonlar qo‘yiladigan oltin xontaxta, kumush xontaxtalar, 17 sanchqilar, tog‘orachalar, ko‘zalar, jomlar va 18 tutatqi qurbongohi. Bundan tashqari, oltin aravaning, ya’ni qanotlarini yoyib, Egamizning Ahd sandig‘ini qoplab turgan oltin karublarning loyihasini* ham Sulaymonga berdi.

19-20 So‘ngra Dovud o‘g‘li Sulaymonga shunday dedi:

— Bularning hammasini men Egamning boshchiligida yozdim, loyihaning ikir–chikirlarini Uning O‘zi menga ayon qildi. Dadil va botir bo‘l! Ishni boshla! Qo‘rqma, vahimaga tushma! Parvardigor Egamiz — mening Xudoyim sen bilan birgadir. Egamizning uyidagi ishlar bitmaguncha, U seni tashlab qo‘ymaydi, tark etmaydi. 21 Mana, ruhoniylar va levilar guruhlari Xudoning uyidagi har qanday xizmatni qilishga tayyor bo‘lib turibdilar. Mohir hunarmandlar senga bajonidil yordam beradilar. Butun xalq va ularning yo‘lboshchilari amringga muntazirdirlar.

29–BOB

Ma’bad qurilishi uchun hadyalar

1 Shoh Dovud butun jamoaga shunday dedi:

“Xudo tanlagan o‘g‘lim Sulaymon hali yosh, tajribasiz, qiladigan ishi esa
ulkandir, chunki bu Muqaddas koshona* inson uchun emas, balki Parvardigor
Egamiz uchundir. 2 Xudoyimning uyini qurish uchun men qo‘limdan kelganicha
oltin, kumush, bronza, temir, yog‘och, aqiq toshlar, bezak uchun firuza toshlar,
rango–rang toshlar, har xil qimmatbaho toshlar va marmar yig‘dim. 3 Endi esa,
Xudoyimning uyiga bo‘lgan sadoqatimni ko‘rsatib, bularga qo‘shimcha qilgan
holda shaxsiy xazinamdagi oltin va kumushni beraman. 4 Men berayotgan mana
bu 6000 pud* Ofir* oltinini va 14.000 pud* toza kumushni binolarning
devorlarini qoplash uchun 5 hamda hunarmandlar yasaydigan ashyolar uchun
ishlatinglar. Qani, yana kim bugun Egamizga o‘z sadoqatini ko‘rsatmoqchi? Kim

Ma’badning qurilishiga nazrlar bermoqchi?”

6 Shunda urug‘boshilar, qabila yo‘lboshchilari, mingboshilar, yuzboshilar va
shohning a’yonlari ko‘ngildan chiqarib nazrlar berdilar. 7 Ular Xudo uyining qurilishi
uchun 10.000 pud* oltin, 10.000 oltin tanga*, 20.000 pud* kumush, 36.000 pud* bronza
va 200.000 pud* temir nazr qildilar. 8 Kimda qimmatbaho toshlar bo‘lsa, ularni
Egamizning uyi xazinasiga berdilar. Xazinaga Gershon naslidan bo‘lgan Yoxiyol mas’ul
edi. 9 Odamlar yo‘lboshchilarning bergan bu hadyalari uchun sevindilar, chunki
hammalari ko‘ngildan chiqarib bergan bu nazrlarini yakdillik bilan Egamizga keltirgan
edilar. Shoh Dovud ham juda xursand bo‘ldi.

Dovud Xudoni madh qiladi

10 Dovud butun jamoaning ko‘zi oldida Egamizga hamdu sano o‘qidi:

“Ey bobomiz Yoqubning* Xudosi — Egamiz! Senga to abad hamdu sanolar
bo‘lsin! 11 Ey Egamiz! Sen buyuk, qudratli, shuhratli, salobatli va ulug‘dirsan.
Zotan, yeru osmondagi barcha narsa Senikidir. Ey Egamiz! Sen Shohsan. Sen har
narsadan yuksaksan. 12 Boylik va shon–sharafning manbai Sensan. Ha, Sen
hamma narsa ustidan hukmronsan. Kuch–qudrat egasi O‘zingsan. Odamlarni
yuksaltiradigan, ularga kuch beradigan Sensan. 13 Endi, ey Xudoyimiz, biz Senga
shukurlar aytamiz, Sening ulug‘ nomingni madh qilamiz.
14 Lekin men kim bo‘libman, mening xalqim nima bo‘libdiki, biz ko‘ngildan
chiqarib Senga nazr bera oladigan bo‘lsak? Axir, hamma narsa Sendan kelgan! Biz
bugun bor–yo‘g‘i Sening narsangni O‘zingga qaytarib berdik, xolos. 15 Biz Sening
oldingda, ota–bobolarimiz singari musofiru mehmonmiz. Bizning umrimiz
soyaday izsiz o‘tib ketadi. 16 Ey Egamiz Xudo! Biz Sening muqaddas ismingga atab
uy barpo qilish uchun yiqqan mana shu boyliklarning hammasi Sendan kelgan.
Ha, hammasi O‘zingnikidir. 17 Ey Xudoyim! Bilaman, Sen yurakni sinaysan, solih
odamdan xushnud bo‘lasan. Mana shu nazrlarni men Senga chin dildan,
ko‘nglimdan chiqarib berdim. Hozir esa shu yerda turgan xalqing ham nazrlarini
Senga xursandchilik bilan ataganini ko‘rdim. 18 Ey ota–bobolarimiz Ibrohim,
Is’hoq va Yoqubning Xudosi — Egamiz! Xalqingning yuragidagi bu niyatu
maqsadlarini to abad saqla, ularning yuragini O‘zingga bur. 19 O‘g‘lim Sulaymon
Sening amrlaringga, shartlaringga va qonunlaringga rioya qila olishi uchun va
men hozirligini ko‘rib qo‘ygan Muqaddas koshonani qura olishi uchun unga
kuchli istak ato qilgin.”

20 Shundan keyin Dovud butun jamoaga: “Egangiz Xudoni olqishlang!” dedi. Ular ota–
bobolarining Xudosi — Egamizni olqishladilar. Unga ta’zim qilib, Egamiz va shohning
oldida muk tushdilar.
21 Ertasi kuni ular mingta buqa, mingta qo‘chqor va mingta qo‘zini Egamizga
kuydiriladigan qurbonlik qildilar. Bular bilan birga sharob nazrlarini va butun Isroil
xalqi uchun bir talay boshqa qurbonliklarni keltirdilar. 22 O‘sha kuni jamiki Isroil xalqi
katta xursandchilik bilan Egamiz huzurida yeb–ichdi.

Ular Dovud o‘g‘li Sulaymonni ikkinchi marta* shoh deb e’lon qildilar. So‘ng
Sulaymon va Zodo‘xning boshlariga moy surtib, Sulaymonni Egamizning shahzodasi,

Zodoʻxni esa ruhoniy qilib tayinladilar. 23 Sulaymon Egamizning taxtiga oʻtirib, otasi
Dovudning oʻrniga shoh boʻldi. U katta muvaffaqiyatga erishdi, butun Isroil xalqi unga
itoat qilar edi. 24 Barcha yoʻlboshchilar, bahodir jangchilar va shoh Dovudning hamma
oʻgʻillari shoh Sulaymonga sodiq boʻlishga soʻz berdilar. 25 Egamiz Sulaymonni shu qadar
yuksaltirdiki, butun Isroil xalqi uni nihoyatda izzat qiladigan boʻldi. Darhaqiqat,
Sulaymondan oldin hech qanday shoh Isroilda bunday dabdabali shuhratga erishmagan
edi.

Dovud hukmronligining soʻnggi paytlari

26 Essay oʻgʻli Dovud butun Isroil ustidan shoh boʻlgandi. 27 U Isroilda qirq yil shohlik
qildi: shundan yetti yili Xevronda, oʻttiz uch yili Quddusda oʻtdi. 28 Dovud davlatu
shuhrat orttirdi. Yoshini yashab, oshini oshab, olamdan oʻtdi. Oʻrniga oʻgʻli Sulaymon
shoh boʻldi.

29 Shoh Dovudning butun faoliyati boshdan oxirigacha valiy Shomuilning, Natan
paygʻambarning va valiy Gadning qoʻlyozmalarida bayon etilgan. 30 Dovudning
hukmronligi davrida koʻrsatgan qahramonliklari, Isroil xalqining va oʻzining boshidan
kechirgan voqealar hamda atrofdagi shohliklarda yuz bergan hodisalar oʻsha kitoblarga
kiritilgan.

IZOHLAR

1:3 *Xano‘x* — sharq yozma adabiyotida Idris payg‘ambar deb e’tirof etilgan.

1:4 *…va Nuh. Nuhning Som, Xom va Yofas degan uch o‘g‘li bor edi* — qadimiy yunoncha tarjimadan (yana Ibtido 6:10 ga qarang). Ibroniycha matnda *…Nuh, Som, Xom va Yofas*.

1:6 *Rifat* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Difat*. Uning Rifat degan shakli Ibtido 10:3 dan olingan.

1:8 *Kush* — Misrdan janubda o‘rnashgan xalqning bobokaloni edi. Ibroniycha matndagi bu so‘z odatda *Habashiston* deb tarjima qilinadi. Qadimgi Habashiston hududi hozirgi Sudan va Efiopiya mamlakatlarining ba’zi qismlarini o‘z ichiga olgan.

1:8 *Mizra* — Misr xalqining bobokaloni edi. Ibroniycha matndagi bu so‘z odatda Misr deb tarjima qilinadi.

1:12 *Kasluvdan Filist xalqi kelib chiqdi* — ibroniycha matndan. Eski Ahdning ba’zi joylarida, Filist xalqi Xafto‘rdan kelib chiqqan, deb yozilgan (Yeremiyo 47:4, Amos 9:7 ga qarang). Shu bois, ba’zi tarjimalarda Kasluv o‘rniga Xafto‘r so‘zi ishlatilib *Xafto‘rdan Filist xalqi kelib chiqdi* deb aytilgan. Oyatdan ko‘rinib turibdiki, Kasluv va Xafto‘r qondosh xalqlar bo‘lgan. Filistlar Kasluv xalqi istiqomat qilgan yerlardan kelib chiqib, keyinchalik Xafto‘rda, ya’ni hozirgi Krit orolida o‘rnashgan bo‘lishlari mumkin. Kasluv xalqi haqida deyarli hech qanday ma’lumot saqlanib qolmagan.

1:17 *…Oram va ulardan kelib chiqqan xalqlar. Oram nasli: Uz, Xul, Geter, Meshex…* — bitta ibroniy qo‘lyozmasidan va qadimiy yunoncha tarjimaning ba’zi qo‘lyozmalaridan (yana Ibtido 10:23 ga qarang). Ibroniycha matnda *…Oram, Uz, Xul, Geter, Meshex….*

1:18 *Ibir* — ehtimol, *ibroniy* so‘zi shu so‘zdan hosil bo‘lgan. *Ibroniy* so‘zi millat ma’nosida dastlab Ibrohimga va uning nasliga nisbatan qo‘llanilgan (Ibtido 10:21, 14:13, 39:14,17, 40:15, 41:12 va 43:32 ga qarang).

1:19 *…Palax…davrida dunyo bo‘linib ketdi* — ibroniychada Palax ismining ma’nosi — *bo‘linib ketdi*. Bu gapda Xudo insoniyatni turli millat va tillarga bo‘lgani, ularni butun yer yuzi bo‘ylab tarqatib yuborgani nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin (Ibtido 11:1-9 ga qarang). *Palax* so‘zining o‘zagi bo‘lgan ibroniycha fe’l Zabur 54:10 da ishlatilgan. O‘sha oyatda sano ijodkori Xudodan dushmanlarning gapini chalkashtirishni (ya’ni bo‘lib tashlashni) so‘ragan.

1:22 *Obal* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Ebal*. Uning Obal degan shakli Ibtido 10:28 dan olingan.

1:32 *cho‘ri* — ibroniycha matnda bu so‘zning ma’nosi quyidagicha: cho‘ri bo‘lgan ayollar qonuniy xotin bo‘lmasalar–da, xo‘jayinlari ular bilan jinsiy aloqada bo‘lishgan. Qadimgi paytlarda bu ayollarning jiddiy qonuniy huquqlari bo‘lib, xo‘jayinlari ularning erlari sifatida bo‘lgan.

1:34 *Yoqub* — ibroniycha matnda *Isroil*, Yoqubning yana bir ismi (Ibtido 32:27-28 ga qarang).

1:36 *Zafo‘* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Zafi*. Uning Zafo‘ degan shakli Ibtido 36:11 dan olingan.

1:36 *...va Timna ismli cho‘risi tuqqan o‘g‘li Omolek* — qadimiy yunoncha tarjimaning ba’zi qo‘lyozmalaridan (yana Ibtido 36:12 ga qarang). Ibroniycha matnda *...Timno va Omolek*.

1:38 *Seir* — Edom xalqining bobokaloni (Ibtido 36:20-21 ga qarang). Bu xalq O‘lik dengizning janubida o‘rnashgan. Edom yurtining yana bir nomi Seir edi.

1:40 *Shafo* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Shafi*. Uning Shafo degan shakli Ibtido 36:23 dan olingan.

1:41 *Xamdon* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Xamron*. Uning Xamdon degan shakli Ibtido 36:26 dan olingan.

1:42 *Oqon* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Yaqon*. Uning Oqon degan shakli Ibtido 36:27 dan olingan.

1:48 *Furot daryosi* — ibroniycha matnda *daryo*, Furot daryosi nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin.

1:50 *Pog‘u* — ibroniycha matnda bu nomning boshqa varianti *Pog‘iy*. Uning Pog‘u degan shakli Ibtido 36:39 dan olingan.

1:51 *Elvo* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Eliyo*. Uning Elvo degan shakli Ibtido 36:40 dan olingan.

2:1 *Yoqub* — ibroniycha matnda *Isroil*, Yoqubning yana bir ismi (Ibtido 32:27-28 ga qarang).

2:3 *Botshuva* — yoki *Shuvaning qizi*.

2:6 *Dardax* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Daro*. Uning Dardax degan shakli 3 Shohlar 4:31 dan olingan.

2:7 *Oxun* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Oxor*. Uning Oxun degan shakli Yoshua 7:1 dan olingan. Ibroniychada Oxor ismining ma’nosi — *kulfat* (Yoshua 7:1-26 ga qarang).

2:9 *Xolib* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Xalubay*. Uning Xolib degan shakli shu bobning 18–oyatidan olingan.

2:15 *...yettinchisi Dovud edi* — 1 Shohlar 16:10-13 da yozilishicha, Dovud Essayning sakkizinchi o‘g‘li bo‘lib, Shomuil payg‘ambar Xudoning amriga ko‘ra, unga moy surtgan edi. Bu ro‘yxatda esa Essayning faqat yettita o‘g‘li qayd etilgan. Yetti raqami yahudiylar madaniyatida hurmat–ehtirom ramzi bo‘lgani uchun, bu ro‘yxatda Dovud yettinchi o‘g‘il deb tilga olingan bo‘lishi mumkin.

2:23 *Yovir shaharlari* — ibroniycha matnda *Xavot–Yovir*, ma’nosi *Yovir shaharlari*.

2:24 *Xazron vafot etgandan keyin...Ular Ashxur ismli o‘g‘il ko‘rdilar* — qadimiy yunoncha tarjimadan. Ibroniycha matnda *Xazron Xolib–Efrata shahrida vafot etgandan keyin, uning xotini Abiyo Ashxur ismli bir o‘g‘ilni tug‘di*. Yana shu bobning 19 va 50–oyatlariga qarang, bu oyatlarda Efrata degan ism Xolibning xotiniga nisbatan ishlatilgan.

2:24 *Ashxur Taxuva shahriga asos soldi* — ibroniycha matnda *Ashxur Taxuvaning otasi bo‘ldi*. Ibroniycha matnda shu bobning bir nechta joyida “otasi bo‘ldi” degan ibroniycha iborani *shaharga asos soldi* deb tarjima qilsa ham bo‘ladi.

2:31 *Oxlay* — Shashonning qizi (shu bobning 34–oyatiga qarang).

2:46 *cho‘ri* — 1:32 izohiga qarang.

2:48 *cho‘ri* — 1:32 izohiga qarang.

2:49 *asos soldi* — shu bobning 24–oyatiga berilgan ikkinchi izohga qarang. *Asos soldi* va *asoschisi* degan so‘zlar shu bobning 50, 51, 52, 54–oyatlarida ham bor.

2:55 *kotiblarning urug‘lari* — yoki *So‘farim urug‘lari*.

2:55 *Xammat Raxav urug‘ining bobokaloni edi* — yoki *Xammat Baytraxavning otasi edi*.

3:5 *Shammuva* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Shimo*. Uning Shammuva degan shakli 14:4 dan olingan (yana 2 Shohlar 5:14 ga qarang).

3:5 *Botsheva* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Botshuva*.

3:6 *Elishuva* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Elishama*. Uning Elishuva degan shakli 14:5 dan va 2 Shohlar 5:15 dan olingan.

3:6 *Elfalat* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Elifalet*. Uning Elfalat degan shakli 14:5 dan olingan.

3:9 *kanizaklar* — ibroniycha matnda bu so‘zning ma’nosi quyidagicha: kanizaklar qonuniy xotin bo‘lmasalar–da, xo‘jayinlari ular bilan jinsiy aloqada bo‘lishgan. Qadimgi paytlarda bu ayollarning jiddiy qonuniy huquqlari bo‘lib, xo‘jayinlari ularning erlari sifatida bo‘lgan.

3:11 *Yohuram* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Yoram*.

3:12 *Uzziyo* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Ozariyo*.

3:15 *Yohuxoz* — ibroniycha matnda *Shallum*, Yohuxozning yana bir ismi (4 Shohlar 23:30 ga qarang).

3:16 *Yohayixin* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Yoxoniyo* (shu bobning 17–oyatida ham bor).

3:17 *Bobilga asir qilib olib ketilgan Yohayixin* — 4 Shohlar 24:10-15 ga qarang.

4:3-4 *Xurning avlodlari Baytlahm shahriga asos soldilar* — ibroniycha matnda *Xur Baytlahmning otasi bo‘ldi*. Ibroniycha matnda shu bobning bir nechta joyida “otasi bo‘ldi” degan ibroniycha iborani *shaharga asos soldi* deb tarjima qilsa ham bo‘ladi.

4:5 *asos solgan* — shu bobning 3-4–oyatlari izohiga qarang.

4:9 *Yabiz* — bu ism ibroniychadagi *dard* so‘ziga ohangdosh.

4:12 *asos soldi* — shu bobning 3-4–oyatlari izohiga qarang. Shu bobning 14, 17-18–oyatlarida ham bor.

4:13 *…bilan Miyono‘tay…* — qadimiy yunoncha tarjimaning ba’zi qo‘lyozmalaridan, qadimiy lotincha tarjimadan. Ibroniycha matnda bu so‘zlar yo‘q.

4:14 *Gay–Xaroshim* — ibroniychadagi ma’nosi *hunarmandlar vodiysi*.

4:19 *Ulardan…kelib chiqdi* — yoki *Keylax va Eshtamo‘va Xo‘diyoning avlodlari bo‘lib, Keylax Xarm urug‘idan, Eshtamo‘va esa Maxo urug‘idan edi*.

4:22 *Ular…Baytlahm shahriga o‘rnashib olgan edilar* — yoki *Ular Mo‘ab va Yoshuvlahmda hukmronlik qilar edilar*.

4:24 *Yamuvol* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Namuvol*. Uning Yamuvol degan shakli Ibtido 46:10, Chiqish 6:15 dan olingan.

4:24 *Zo‘xar* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Zerax*. Uning Zo‘xar degan shakli Ibtido 46:10, Chiqish 6:15 dan olingan.

4:33 *Baalat* — ibroniycha matnda bu nomning boshqa varianti *Baal*.

4:42 *Seir tog‘lari* — Edom yurtiga qarashli bo‘lgan tog‘li yerlar.

4:43 *bugunga qadar* — shu kitob yozilgan vaqtga ishora.

5:1 *Yoqub* — ibroniycha matnda *Isroil*, Yoqubning yana bir ismi (Ibtido 32:27-28 ga qarang).

5:1 *...u otasining to‘shagini bulg‘agani uchun...* — Ibtido 35:22, 49:3-4 ga qarang.

5:1 *to‘ng‘ichlik huquqi* — qadimgi Isroilda to‘ng‘ich o‘g‘ilga merosning katta qismi va otasining butun xonadonini boshqarish huquqi berilar edi.

5:2 *...yo‘lboshchi uning qabilasidan chiqdi* — shoh Dovud nazarda tutilgan.

5:6 *Tig‘latpilasar* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Tig‘latpilnasar* (shu bobning 26–oyatida ham bor). Tig‘latpilasar miloddan oldingi 745-727 yillarda Ossuriyada hukmronlik qilgan. Shu bobning 26–oyatiga va 4 Shohlar 15:29 ga qarang.

5:18 *Manashe qabilasi yarmi* — Iordan daryosining sharq tomonida o‘rnashgan qabilaning yarmi nazarda tutilgan (Yoshua 13:8, 29-31 ga qarang). Qabilaning ikkinchi yarmi Iordan daryosining g‘arb tomonidagi Kan’on yurtida o‘rnashgan edi (Yoshua 22:7 ga qarang).

5:22 *surgun* — shu bobning 26–oyatiga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

5:26 *Shoh Tig‘latpilasar ularni...surgun qildi* — bu hodisalar taxminan miloddan oldingi 733 yilda ro‘y bergan. Tig‘latpilasar miloddan oldingi 745-727 yillarda Ossuriyada hukmronlik qilgan.

6:10 *Ma’bad* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *uy*.

6:15 *Egamiz shoh Navuxadnazar orqali Yahudo va Quddus xalqini surgun qilganda...* — 4 Shohlar 24:8-17, 25:1-21 ga qarang.

6:23 *Abuasaf* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Ebuasaf* (shu bobning 37–oyatida ham bor). Uning Abuasaf degan shakli Chiqish 6:24 dan olingan.

6:27 *...Elqanadan Shomuil tug‘ildi* — qadimiy yunoncha tarjimaning ba’zi qo‘lyozmalaridan (yana shu bobning 28, 33-34–oyatlariga va 1 Shohlar 1:19-20 ga qarang). Ibroniycha matnda bu so‘zlar yo‘q.

6:32 *...Muqaddas chodirning oldida...* — ibroniycha matnda *...Muqaddas chodir, Uchrashuv chodirining oldida...*. Muqaddas chodir yana Uchrashuv chodiri deb ham aytiladi. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi MUQADDAS CHODIR iborasiga qarang.

6:38 *Yoqub* — ibroniycha matnda *Isroil*, Yoqubning yana bir ismi (Ibtido 32:27-28 ga qarang).

6:54 *...qur’a bo‘yicha...* — qur’a tashlashda yog‘och bo‘laklari yoki toshlar ishlatilgan bo‘lib, shu orqali Xudoning xohish–irodasi aniqlangan. Ba’zan odamlar qur’a tashlab,

Xudodan biror ishni qanday yoki qachon qilish kerakligini so‘rashgan.

6:57 *panoh shahar* — Sahroda 35:9-15, Qonunlar 19:1-13, Yoshua 20:1-9 ga qarang.

6:58 *Xo‘lun* — ibroniycha matnda bu nomning boshqa varianti *Xilen*. Uning Xo‘lun degan shakli Yoshua 21:15 dan olingan.

6:59 *Oyin* — ibroniycha matnda bu nomning boshqa varianti *Oshon*. Uning Oyin degan shakli Yoshua 21:16 dan olingan.

6:59 *Yutto* — qadimiy yunoncha va suryoniycha tarjimalardan (yana Yoshua 21:16 ga qarang). Ibroniycha matnda bu nom yo‘q.

6:60 *Givon* — Yoshua 21:17 dan olingan. Ibroniycha matnda bu nom yo‘q.

6:77 *Yoxnayom, Kartax* — qadimiy yunoncha tarjimadan (yana Yoshua 21:34 ga qarang). Ibroniycha matnda bu nomlar yo‘q.

6:78-79 *Yaxaz* — ibroniycha matnda bu nomning boshqa varianti *Yaxzo*.

7:13 *Shillem* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Shallum*. Uning Shillem degan shakli Ibtido 46:24 dan olingan (yana Sahroda 26:49 ga qarang).

7:13 *Bilxax* — Yoqubning xotini Rohilaning cho‘risi (Ibtido 30:1-7, 46:23-25 ga qarang).

7:14-15 *cho‘ri* — 1:32 izohiga qarang.

7:23 *Bariyo* — bu ism ibroniychadagi *baxtsizlik* so‘ziga ohangdosh.

7:29 *Yoqub* — ibroniycha matnda *Isroil*, Yoqubning yana bir ismi (Ibtido 32:27-28 ga qarang).

7:34 *Sho‘mer* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Shamer*. Uning Sho‘mer degan shakli shu bobning 32–oyatidan olingan.

7:35 *Xo‘tam* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Xalem*. Uning Xo‘tam degan shakli shu bobning 32–oyatidan olingan.

8:29 *Yaviyol* — qadimiy yunoncha tarjimaning ba’zi qo‘lyozmalaridan (yana 9:35 ga qarang). Ibroniycha matnda bu ism yo‘q.

8:29 *Yaviyol Givon shahriga asos solib, o‘sha shaharda o‘rnashdi* — ibroniycha matnda *Yaviyol Givonning otasi bo‘ldi va Givon shahrida o‘rnashdi*. “Otasi bo‘ldi” degan ibroniycha iborani *shaharga asos soldi* deb tarjima qilsa ham bo‘ladi.

8:30 *Nar* — qadimiy yunoncha tarjimaning ba’zi qo‘lyozmalaridan (yana 9:36 ga qarang). Ibroniycha matnda bu ism yo‘q.

8:31 *Zakariyo* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Zakar*. Uning Zakariyo degan shakli 9:37 dan olingan.

8:32 *Shimom* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Shimox*. Uning Shimom degan shakli 9:38 dan olingan.

8:33 *Ishbosit* — ibroniycha matnda *Ishbaal*, Ishbositning yana bir ismi (2 Shohlar 2:8-10 ga qarang).

8:34 *Mefibosit* — ibroniycha matnda *Maribaal*, Mefibositning yana bir ismi (2 Shohlar 4:4 ga qarang).

8:37 *Rafiyo* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Rafax*. Uning Rafiyo degan

shakli 9:43 dan olingan.

9:17-18 *...bugungacha...* — shu kitob yozilgan vaqtga ishora.

9:19 *Abuasaf* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Ebuasaf*. Uning Abuasaf degan shakli Chiqish 6:24 dan olingan.

9:19 *Ma'bad* — ibroniycha matnda *chodir*, bu o'rinda Ma'bad nazarda tutilgan.

9:20 *Finxaz* — Sahroda 25:1-13 ga qarang.

9:21 *Ma'bad* — ibroniycha matnda *Uchrashuv chodiri*, bu o'rinda Ma'bad nazarda tutilgan.

9:31 *nazr nonlari* — Levilar 2:4-7, 7:9 ga qarang.

9:32 *muqaddas nonlar* — bu nonlar Ma'badda Egamizning huzurini aks ettiruvchi timsol bo'lib, Xudo Isroil xalqining qudrati va ta'minlovchisi ekanligidan darak berib turgan. Nonlar Ma'baddagi maxsus xontaxtaga qo'yilib, har Shabbat kuni yangi pishirilgan nonlar bilan almashtirib turilgan (Levilar 24:5-9 ga qarang).

9:35 *Yaviyol Givon shahriga asos solib, o'sha shaharda o'rnashdi* — ibroniycha matnda *Yaviyol Givonning otasi bo'ldi va Givon shahrida o'rnashdi*. "Otasi bo'ldi" degan ibroniycha iborani *shaharga asos soldi* deb tarjima qilsa ham bo'ladi.

9:39 *Ishbosit* — ibroniycha matnda *Ishbaal*, Ishbositning yana bir ismi (2 Shohlar 2:8-10 ga qarang).

9:40 *Mefibosit* — ibroniycha matnda *Maribaal*, Mefibositning yana bir ismi (2 Shohlar 4:4 ga qarang).

9:41 *Oxoz* — qadimiy suryoniycha va lotincha tarjimalardan (yana 8:35 ga qarang). Ibroniycha matnda bu ism yo'q.

9:42 *Yohuvaddo* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Yorox*. Uning Yohuvaddo degan shakli 8:36 dan olingan.

10:1 *Gilbova tog'i* — Jalila ko'lidan qariyb 32 kilometr janubi–g'arbda joylashgan.

10:7 *Yizril vodiysi* — Gilbova tog'idan shimoli–sharqda joylashgan.

10:10 *xudo Do'g'on* — Filist xalqining bosh xudosi (1 Shohlar 5:2 ga qarang).

10:11 *Yobosh* — 1 Shohlar 11:1-11 ga qarang.

10:12 *...yetti kun ro'za tutishdi* — o'sha davrdagi urf–odatlarga ko'ra, yetti kunlik ro'za azadorlikni bildirardi.

10:13 *...arvoh chaqiruvchiga maslahat solgan edi* — 1 Shohlar 28:3-25 ga qarang.

11:1 *Xevron* — Quddusdan qariyb 32 kilometr janubi–g'arbda joylashgan shahar.

11:5 *Sion qal'asi* — aslida Yobus xalqining qal'asi, bu qal'a Quddusdagi Sion tepaligida joylashgan edi.

11:8 *Quddusning sharq tomonidagi Millo* — Quddus shahri tepalik ustida edi. Bu tepalikning sharq tomoni o'pirilib ketgani uchun uni tuzatish shart bo'lgan. Tepalikning o'pirilib ketgan joyi tuproq bilan to'ldirilgan, kengaytirilgan va mustahkamlangan edi. Tepalikning bu qismi Millo deb atalardi.

11:11 *Uch* — qadimiy yunoncha tarjimaning ba'zi qo'lyozmalaridan (yana 2 Shohlar

23:8 ga qarang). Ibroniycha matnda *O‘ttiz*. “Uch” va “o‘ttiz” so‘zlari ibroniychada deyarli bir xil yoziladi.

11:11 *“Uch qahramon”* — bular eng dongdor jangchilar guruhi edi. Ular mashhur “O‘ttiz qahramon” guruhining maxsus bir qismi bo‘lgan.

11:15 *“O‘ttiz qahramon”* — mashhurlikda ikkinchi o‘rinda turgan jangchilar guruhi.

11:15 *“O‘ttiz qahramon” guruhi tarkibiga kirgan o‘sha uchta qahramon…* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *O‘ttiztadan uchtasi*…. Ba’zilar, matnda “Uch qahramon”dan boshqa uchta jangchiga ishora qilinadi, deb tushunadilar. Lekin shu bobdagi 19–oyatning ikkinchi qismida berilgan xulosada, 11-19–oyatlarda o‘sha uchta jangchi to‘g‘risida so‘z ketyapti, degan fikr aytiladi.

11:15 *…Adullam g‘ori oldidagi qoyaga ketishdi* — Dovud Shoulning ta’qibidan qochib yurgan paytda bu voqea yuz bergan bo‘lishi mumkin (1 Shohlar 22:1-6 ga qarang).

11:15 *Rafa vodiysi* — Quddusdan bir necha kilometr janubi–g‘arbda joylashgan.

11:20 *O‘ttiz* — qadimiy suryoniycha tarjimadan. Ibroniycha matnda *Uch*. “Uch” va “o‘ttiz” so‘zlari ibroniychada deyarli bir xil yoziladi. Shu bobning 21–oyatida ham bor.

11:22 *Mo‘ablik ikki dovyurak odam* — yoki *Mo‘abdagi ikkita ulkan sher* yoki *Mo‘ablik Oriyolning ikki o‘g‘li*.

11:23 *besh tirsak* — taxminan 2,3 metrga to‘g‘ri keladi.

11:27 *Shammox* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Shammo‘t*. Uning Shammox degan shakli 2 Shohlar 23:25 dan olingan.

11:29 *Zalmon* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Ilay*. Uning Zalmon degan shakli 2 Shohlar 23:28 dan olingan.

11:32 *Abualvon* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Abil*. Uning Abualvon degan shakli 2 Shohlar 23:31 dan olingan.

11:33 *Boxurim* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Baxarum*. Uning Boxurim degan shakli 2 Shohlar 23:31 dan olingan.

11:34 *Yoshon* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Xoshim*. Uning Yoshon degan shakli 2 Shohlar 23:32-33 dan olingan.

11:35 *Shoror* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Soxor*. Uning Shoror degan shakli 2 Shohlar 23:32-33 dan olingan.

11:37 *Paray* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Naray*. Uning Paray degan shakli 2 Shohlar 23:35 dan olingan.

12:1 *Birmuncha vaqt oldin* — bu bobda bayon qilingan voqealar Dovud Isroil taxtiga o‘tirishidan oldin (11:1-9 ga qarang), Shouldan qochib yurgan davrga taalluqli.

12:1 *…Dovud shoh Shouldan qochib, Zixlax shahrida yashab yurgan paytda…* — 1 Shohlar 27:1-6 ga qarang.

12:19 *Dovud Filistlarga qo‘shilib, Shoulga qarshi urushga otlanganda…* — 1 Shohlar 29:1-11 ga qarang.

12:23 *Xevron* — 11:1 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

12:40 *…anjir qoqi, mayiz…* — qadimgi paytlarda odamlar anjir va uzumlarni

quritgandan keyin, qoqilarni hovuchlarida qattiq siqib, dumaloq shakl berganlar. Shu tariqa qoqilar uzoq vaqt saqlangan va kundalik iste'mol qilinadigan yegulik bo'lgan.

13:2-3 *...biz Xudoyimizning Ahd sandig'iga e'tiborsiz bo'lib keldik...* — yoki *...biz Xudoning irodasini bilishga intilmadik....*

13:5 *Xirat–Yo'rim* — Quddusdan 15 kilometr shimoli–g'arbda joylashgan shahar. Filistlar jangda Ahd sandig'ini o'lja qilib olgan edilar. Ular Ahd sandig'ini Isroil xalqiga qaytarib yuborgandan keyin, Sandiq Xirat–Yo'rimga olib kelingandi (1 Shohlar 6:13-7:2 ga qarang).

13:5 *Levo–Xomat shahri* — yoki *Xomat dovoni*.

13:6 *ikki karub* — Ahd sandig'ining qopqog'i ustidagi qanotli samoviy mavjudotlar haykallari. To'liqroq ma'lumotga ega bo'lish uchun lug'atdagi KARUB, KARUBLAR so'ziga qarang.

13:7 *Uzzox bilan Oxyo* — Abunadavning o'g'illari (2 Shohlar 6:3-4 ga qarang).

13:9 *Noxun* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Xidon*. Uning Noxun degan shakli 2 Shohlar 6:6 dan olingan.

13:10 *...Uzzox Ahd sandig'iga qo'l uzatgani uchun...* — Ahd sandig'i muqaddas bo'lib, Xudo O'z xalqi orasida ekanining ramzi edi. Ahd sandig'iga qo'l tekkizish qat'iyan man etilgandi (Sahroda 4:5-6, 15 ga qarang). Dovud Xudoning ko'rsatmalariga rioya qilmay (Chiqish 25:12-15 ga qarang), Ahd sandig'ini aravaga orttirgandi.

13:11 *"Paraz–Uzzox"* — ibroniychadagi ma'nosi *Uzzoxning jazosi*, ya'ni *Xudo Uzzoxni urdi*.

13:13 *Gat* — O'rta yer dengizi bo'yida joylashgan bu shahar Filistlarning beshta asosiy shahridan biri edi.

14:1 *Tir* — Finikiyada muhim ahamiyatga ega bo'lgan shahar. Bu shahar Isroildan shimolda, O'rta yer dengizi bo'yida joylashgan edi. Bugungi kunda bu yer Livan mamlakatining janubiy qismini tashkil qiladi.

14:7 *Elyodax* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Balyodo*. Uning Elyodax degan shakli 3:8 dan va 2 Shohlar 5:16 dan olingan.

14:9 *Rafa vodiysi* — Quddusdan bir necha kilometr janubi–g'arbda joylashgan.

14:10 *...Xudodan...deb so'radi* — shoh biror muhim qaror chiqarishdan oldin, Xudoning xohishini bilish uchun ruhoniylarga murojaat qilardi. Bunday hollarda ruhoniylar Urim va Tummim degan muqaddas narsalardan foydalanishardi. To'liqroq ma'lumotga ega bo'lish uchun Chiqish 28:15 ning ikkinchi izohiga qarang. Xudo O'z xohish–irodasini odamlarga ba'zan payg'ambarlar yoki tushlar orqali bildirgan (1 Shohlar 14:36, 28:6 ga qarang).

14:11 *"Baal–Perazim"* — ibroniychadagi ma'nosi *toshqinday bosib yo'q qiluvchi xudo*.

15:12 *...o'zlaringizni va levi birodarlaringizni poklanglar* — diniy xizmatni lozim darajada bajarishga monelik qiladigan nopoklikdan tozalanish marosimi nazarda tutilgan.

15:13 *Oldingi safar...Egamiz Xudo bizdan qattiq g'azablangan edi* — 13:7-10 oyatlarga va 13:10 izohiga qarang.

15:15 *...Egamizning Muso orqali bergan amriga muvofiq...* — Chiqish 25:12-15, Sahroda 4:5-6, 15 ga qarang.

15:18 *...Zakariyo, Yaziyol...* — ba'zi ibroniy qo'lyozmalaridan va qadimiy yunoncha tarjimadan (yana shu bobning 20–oyatiga qarang). Ibroniycha matnda *...Zakariyo, Ban, Yaziyol...*.

15:20 *...arfalarni chalishlari kerak edi* — ibroniycha matnda *...alamo'tga muvofiq arfalarni chalishlari kerak edi*. Ibroniychada "alamo't" so'zi musiqiy termin bo'lishi mumkin.

15:27 *ruhoniylarning muqaddas libosi* — ibroniycha matnda *zig'ir matosidan tikilgan efod*, ya'ni ruhoniylar kiyib yuradigan libos.

15:29 *Mixal* — Dovudning xotinlaridan biri (1 Shohlar 18:20-27 ga qarang).

16:3 *xurmo* — yoki *bir parcha go'sht*.

16:3 *...bir hovuchdan xurmo va bir hovuchdan mayiz...* — qadimgi paytlarda odamlar xurmo va uzumlarni quritgandan keyin, qoqilarni hovuchlarida qattiq siqib, dumaloq shakl berganlar. Shu tariqa qoqilar uzoq vaqt saqlangan va kundalik iste'mol qilinadigan yegulik bo'lgan.

16:12-13 *Isroil* — Yoqubning yana bir ismi (Ibtido 32:27-28 ga qarang).

16:17 *...shunday dedi...* — Ibtido 12:7, 17:8, 26:3, 28:13 ga qarang.

16:22 *Payg'ambarlarim* — Ibrohim, Is'hoq, Yoqubga ishora (Ibtido 20:7 ga qarang).

16:29 *Muqaddas ulug'vorlikka burkangan Egamizga sajda qiling!* — yoki *Muqaddas maskanining ulug'vorligida Egamizga sajda qiling!* yoxud *Muqaddas liboslarda Egamizga sajda qiling!*

16:39 *Givondagi sajdagoh* — Quddusdan qariyb 6 kilometr shimoli–g'arbda joylashgan. O'sha davrda Ahd sandig'i Quddus shahrida, Dovud tomonidan o'rnatilgan maxsus chodirda saqlanar edi (15:1 ga va shu bobning 1–oyatiga qarang). Muqaddas chodir va qurbonlik kuydiriladigan qurbongoh esa Givonda joylashgan edi.

17:6 *hakamlar* — Isroil yo'lboshchilari ba'zan hakamlar deb atalgan. Isroil xalqi dushmanlariga qarshi urush ochganda, hakamlar lashkarboshi sifatida xizmat qilardi. Shuningdek, hakamlar qozi vazifasini, ayrim hollarda diniy vazifalarni ham bajarar edilar.

17:16 *...Egamizning huzurida o'tirib...* — Dovud Quddusda Ahd sandig'ini qo'ygan maxsus chodirda o'tirgan bo'lishi mumkin (15:1, 16:1 ga qarang). Ahd sandig'i Xudo O'z xalqi orasida ekanligining ramzi edi.

17:17 *Nazaringda meni ulug' odamday bilding...* — yoki *Inson bilishni istagan narsani Sen menga ayon etding...*.

18:1 *Gat shahri* — 13:13 izohiga qarang.

18:3 *Zo'vo* — bu yurt Damashqdan shimolda joylashgan edi.

18:8 *Sulaymon...yasattirdi* — 3 Shohlar 7:13-26, 40-45 ga qarang.

18:9 *Xomat* — bu yurt Zo'vo yurtidan shimolda joylashgan edi.

18:9 *To'ax* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *To'vu* (shu bobning 10–

oyatida ham bor). Uning To‘ax degan shakli 2 Shohlar 8:9 dan olingan.

18:10 *Yoram* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Hadoram*. Uning Yoram degan shakli 2 Shohlar 8:10 dan olingan.

18:12 *Tuz vodiysi* — O‘lik dengizning janubidagi o‘lka.

18:13 *Edom yurti* — O‘lik dengizning janubida joylashgan edi.

18:15 *mushovir* — lug‘aviy ma’nosi *maslahatchi*. Bu o‘rinda *xabarchi*. U shohlik ichidagi va xalq orasidagi xabarni shohga, shohning farmonlarini xalqqa yetkazib turgan.

18:16 *Oximalek* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Abumalek*. Uning Oximalek degan shakli 2 Shohlar 8:17 dan olingan.

18:16 *Sarayo* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Shavsho*. Uning Sarayo degan shakli 2 Shohlar 8:17 dan olingan.

18:17 *Xaretlik va Palatlik qo‘riqchilar* — Dovud yollagan bu muhojir sipohlar shohning shaxsiy qo‘riqchilari bo‘lib xizmat qilgan.

19:1 *Ommon* — bu yurt Iordan daryosining sharq tomonida joylashgan edi.

19:6 *…Oram–Naxrayimdan, Oram–Maxodan va Zo‘vo shohliklaridan…* — Isroildan shimolda va shimoli–sharqda joylashgan ittifoqdosh shohliklar.

19:6 *2000 pud* — ibroniycha matnda *1000 talant*, taxminan 34 tonnaga to‘g‘ri keladi.

19:7 *Midavo shahri* — O‘lik dengizning shimoliy qirg‘og‘idan qariyb 20 kilometr sharqda joylashgan.

19:9 *shahar* — Ommon yurtining poytaxti Rabba nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin (shu bobning 15–oyatiga va 20:1 ga qarang).

19:16 *Sho‘vax* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Sho‘fax*. Uning Sho‘vax degan shakli 2 Shohlar 10:16 dan olingan.

20:1 *Rabba shahri* — Ommon yurtining poytaxti.

20:2 *Ommon shohining boshidagi toj* — yoki *Milkomning haykali ustidagi toj*. Milkom — Ommon xalqining xudosi Mo‘laxning yana bir nomi.

20:2 *ikki pud* — ibroniycha matnda *bir talant*, taxminan 34 kiloga to‘g‘ri keladi.

20:4 *Sof* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Sippay*. Uning Sof degan shakli 2 Shohlar 21:18 dan olingan.

20:4 *Rafa xalqi* — Isroil xalqidan avval Kan’onda yashagan, gavdasi ulkan, kuchli jangchilari bilan mashhur bo‘lgan xalq (Qonunlar 2:10-11, 20-21, 3:11 ga qarang).

20:5 *Gat* — O‘rta yer dengizi bo‘yida joylashgan bu shahar Filistlarning beshta asosiy shahridan biri edi.

20:5 *Go‘liyot* — 1 Shohlar 17:4-11, 40-54 ga qarang.

21:15 *Aravno* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *O‘rnan* (shu bobning 18-28–oyatlarida ham bor). Uning Aravno degan shakli 2 Shohlar 24:16 dan olingan.

21:15 *…Yobus xalqidan bo‘lgan Aravno ismli odamning xirmonida…* — bu joy qadimgi Quddusning tashqarisidagi tepalikda joylashgan. Keyinroq Sulaymon Ma’badni shu yerda qurgan (22:1 ga va 2 Solnomalar 3:1 ga qarang).

21:16 *…qanor kiygan…* — qanor dag‘al qoramtir mato bo‘lib, echki yoki tuya junidan to‘qilgan. Qanor kiyib olish umidsizlikni va qayg‘uli holatni ifodalaydi. Ko‘pincha bu harakat Xudodan kechirim so‘rab ibodat qilish va Undan madad tilash bilan birgalikda amalga oshirilgan.

21:23 *xo‘ptir* — ostiga uchli tosh yoki temir mahkamlangan og‘ir taxta. Donni boshoqdan ajratib olish uchun o‘rilib xirmonga yoyilgan bug‘doy ustidan xo‘ptir yurgizilardi.

21:25 *olti yuz oltin tanga* — ibroniycha matnda *olti yuz shaqal oltin*, taxminan 7 kiloga to‘g‘ri keladi.

21:27 *Qiliching* — shu bobning 16–oyatiga qarang.

21:29 *Givon* — 16:39 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

22:4 *Sidon…Tir…* — Finikiyada muhim ahamiyatga ega bo‘lgan shaharlar. Bu shaharlar Isroildan shimolda, O‘rta yer dengizi bo‘yida joylashgan edi. Bugungi kunda bu yer Livan mamlakatining janubiy qismini tashkil qiladi.

22:9 *Sulaymon* — bu ism ibroniychadagi *tinchlik* so‘ziga ohangdosh.

22:14 *200.000 pud* — ibroniycha matnda *100.000 talant*, taxminan 3400 tonnaga to‘g‘ri keladi.

22:14 *2.000.000 pud* — ibroniycha matnda *1.000.000 talant*, taxminan 34.000 tonnaga to‘g‘ri keladi.

23:7 *Lubnax* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Laden* (shu bobning 8, 9–oyatlarida ham bor). Uning Lubnax degan shakli 6:17 dan olingan (yana Chiqish 6:17, Sahroda 3:18 ga qarang).

23:32 *Uchrashuv chodiri* — Muqaddas chodirning yana bir nomi.

24:5 *…qur’a bo‘yicha…* — 6:54 izohiga qarang.

24:20 *Shavuvol* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Shuvavol*. Uning Shavuvol degan shakli 23:16 dan olingan (yana 26:24 ga qarang).

24:22 *Shalumit* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Shalumo‘t*. Uning Shalumit degan shakli 23:18 dan olingan.

24:23 *Xevron naslidan — to‘ng‘ichi Yoriyo, ikkinchisi — Emoriyo…* — ikkita ibroniy qo‘lyozmasidan va qadimiy yunoncha tarjimaning ba’zi qo‘lyozmalaridan (yana 23:19 ga qarang). Ibroniycha matnda *Yoriyo naslidan — ikkinchisi Emoriyo…*.

24:28-29 *…Maxli naslidan…Yaraxmal…* — yoki *…Marori naslidan — Elazar. Elazarning o‘g‘illari yo‘q edi. Kish naslidan — Yaraxmal…*.

25:3 *Shimax* — bitta ibroniy qo‘lyozmasidan va qadimiy yunoncha tarjimaning ba’zi qo‘lyozmalaridan (yana 25:17 ga qarang). Ibroniycha matnda bu ism yo‘q.

25:7-9 *…qur’a tashlashdi* — 6:54 izohiga qarang.

25:11 *Zari* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Yizri*. Uning Zari degan shakli shu bobning 3–oyatidan olingan.

25:14 *Osorilax* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Yasarelax*. Uning Osorilax degan shakli shu bobning 2–oyatidan olingan.

25:18 *Uziyol* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Ozariyol*. Uning Uziyol degan shakli shu bobning 4–oyatidan olingan.

25:20 *Shavuvol* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Shuvavol*. Uning Shavuvol degan shakli shu bobning 4–oyatidan olingan.

26:13 *...qur'a tashlab...* — 6:54 izohiga qarang.

26:14 *Mashalmiyo* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Shalamiyo*. Uning Mashalmiyo degan shakli shu bobning 2–oyatidan olingan.

26:20 *Oxiyo boshchiligidagi boshqa levilar...* — ibroniycha matndan. Qadimiy yunoncha tarjimada *Ularning levi birodarlari...*.

26:21 *Lubnax* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Laden*. Uning Lubnax degan shakli 6:17 dan olingan (yana Chiqish 6:17, Sahroda 3:18 ga qarang).

27:6 *Binayo* — 11:22-25 ga qarang.

27:15 *Xaled* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Xalday*. Uning Xaled degan shakli 11:30 dan olingan.

27:21 *Giladdagi Manashe qabilasining yarmi* — Gilad o'lkasi Iordan daryosining sharq tomonida bo'lib, Manashe qabilasining yarmi shu yerda o'rnashgan edi (Yoshua 13:8, 29-31 ga qarang). Qabilaning ikkinchi yarmi Iordan daryosining g'arb tomonidagi Kan'on yurtida o'rnashgan edi (Yoshua 22:7 ga qarang).

27:24 *...Yo'ab xalqni sanashni boshlagandi–yu, lekin oxiriga yetkazmagandi* — 21:1-6 ga qarang.

27:24 *...Egamiz Isroilga g'azabini sochgandi* — 21:7-15 ga qarang.

27:28 *shikamora–anjir* — anjirning qadimgi Yaqin Sharqda keng tarqalgan bir turi. Kattaligi yong'oq daraxtiday, barglari esa tut barglariga o'xshash bo'lib, yil davomida bir necha bor hosil beradigan sersoya daraxt.

28:2 *Xudoning oyoq kursisi bo'lmish Egamizning Ahd sandig'i* — Ahd sandig'i ustidagi ikki karub orasidagi joy Xudoning yer yuzidagi taxti deb hisoblanardi (2 Shohlar 6:2 ga qarang).

28:12 *ko'nglidagi niyatlari* — yoki *Xudoning Ruhi unga ayon qilgan rejalar*.

28:18 *...oltin aravaning, ya'ni...oltin karublarning loyihasi...* — Eski Ahdning ba'zi oyatlarida karublar Xudoning taxtini ko'tarib yuradigan vosita sifatida tasvirlanadi (Hizqiyol 1, 10–boblarga qarang). Karublar haqida to'liqroq ma'lumotga ega bo'lish uchun lug'atdagi KARUB, KARUBLAR so'ziga qarang.

29:1 *Muqaddas koshona* — ibroniycha matnda *koshona*, Ma'bad nazarda tutilgan (shu bobning 19–oyatida ham bor).

29:4 *6000 pud* — ibroniycha matnda *3000 talant*, taxminan 102 tonnaga to'g'ri keladi.

29:4 *Ofir* — bu yurt Arabiston yarim orolining janubida joylashgan bo'lishi mumkin. Ofir oltini eng sifatli oltin hisoblangan.

29:4 *14.000 pud* — ibroniycha matnda *7000 talant*, taxminan 238 tonnaga to'g'ri keladi.

29:7 *10.000 pud* — ibroniycha matnda *5000 talant*, taxminan 170 tonnaga to'g'ri keladi.

29:7 *10.000 oltin tanga* — ibroniycha matnda *10.000 oltin darik*. Darik oltin tanga bo'lib,

taxminan 8 grammga to‘g‘ri keladi, demak, berilgan oltinning umumiy og‘irligi taxminan 80 kiloga to‘g‘ri keladi.

29:7 *20.000 pud* — ibroniycha matnda *10.000 talant*, taxminan 340 tonnaga to‘g‘ri keladi.

29:7 *36.000 pud* — ibroniycha matnda *18.000 talant*, taxminan 612 tonnaga to‘g‘ri keladi.

29:7 *200.000 pud* — ibroniycha matnda *100.000 talant*, taxminan 3400 tonnaga to‘g‘ri keladi.

29:10 *Yoqub* — ibroniycha matnda *Isroil*, Yoqubning yana bir ismi (shu bobning 18–oyatida ham bor). Ibtido 32:27-28 ga qarang.

29:22 *ikkinchi marta* — Sulaymon birinchi marta shoh deb e’lon qilingani haqida 23:1 yoki 3 Shohlar 1:32-36 da so‘z yuritilgan bo‘lishi mumkin. Qadimiy yunoncha tarjimada *ikkinchi marta* iborasi yo‘q.

SOLNOMALAR
(IKKINCHI KITOB)

Kirish

“Solnomalar (ikkinchi kitob)”da Isroil tarixining davomi bayon qilinadi. Garchi “Solnomalar (birinchi kitob)” va “Solnomalar (ikkinchi kitob)”larda “Shohlar” kitoblaridagi koʻp voqealar takrorlansa ham, Isroil tarixi “Shohlar” kitoblaridagiga qaraganda, bir oz boshqacharoq nuqtayi nazardan yoritiladi. Mazkur kitobda asosiy e’tibor shoh Sulaymonga, u qurgan Ma’badga va Ma’baddagi sajda marosimlariga qaratiladi.

“Solnomalar (birinchi kitob)” va “Solnomalar (ikkinchi kitob)”ning asl nusxasi bitta ibroniycha kitob boʻlib, ikkala qismni bitta oʻramga joylash uzunlik qilgani uchun, kitob ikki qismga — “Solnomalar (birinchi kitob)” va “Solnomalar (ikkinchi kitob)”ga boʻlingan.

“Solnomalar (ikkinchi kitob)” shoh Sulaymonning hukmronligi tarixi bilan boshlanadi. Soʻngra miloddan oldingi 586 yilda Quddus shahrining qulashigacha Yahudo va Isroil shohliklarida yuz bergan voqealar hikoya qilinadi.

Shoh Sulaymon Isroilning dono shohi sifatida dong taratadi. “Solnomalar (ikkinchi kitob)”ning dastlabki qismida (1-9–boblar) Sulaymon hukmronligi davridagi voqealar, xususan, Quddusdagi Ma’badning qurilishi, Xudoga bagʻishlanishi va ilk sajda marosimlari haqida bayon qilinadi.

Kitobning ikkinchi qismi (10-36–boblar) Isroildagi shimoliy qabilalarning isyoni bilan boshlanadi. Bu qabilalar oʻzlari mustaqil davlat tuzib, Xudoga sajda qilish uchun Quddusdagi Ma’badga bormay qoʻyadilar. Natijada, mamlakat ikkita alohida shohlikka — janubda Yahudo shohligiga va shimolda Isroil shohligiga boʻlinib ketadi. Kitobning bu qismida Quddusning qulashi va vayron boʻlishigacha yuz bergan voqealar bayon qilinadi. Mazkur kitob, “Shohlar (uchinchi kitob)” va “Shohlar (toʻrtinchi kitob)”dan farqli ravishda, Isroil, ya’ni shimoliy shohlik toʻgʻrisida kam ma’lumot beradi. “Solnomalar (ikkinchi kitob)”da yozilishicha, Isroil xalqi Xudodan yuz oʻgirib, koʻp gunoh qilgan. Shuning uchun ularning tarixi bayon qilinishga arzimas edi. Mazkur kitobda butun e’tibor Ma’baddagi sajda marosimlarini tiklagan shohlarga qaratiladi.

“Solnomalar (ikkinchi kitob)”da, xuddi “Solnomalar (birinchi kitob)”dagi singari, Xudoga toʻgʻri yoʻllar bilan sajda qilish muhimligiga katta e’tibor beriladi. Yahudo shohlari Hizqiyo va Yoʻshiyo Xudoga boʻlgan sadoqati, qonunga itoatkorligi va amalga oshirgan islohotlari tufayli yuksak obroʻga sazovor boʻlgan shohlar hisoblanadi.

Mazkur kitobda Quddusning vayron boʻlishi va Yahudo xalqi Bobilga asir qilib olib ketilishi toʻgʻrisida ham hikoya qilinadi. Yahudo xalqiga berilgan umid va’dasi kitobga yakun yasaydi. Fors shohi Kurush* asirlarga Yahudoga qaytishlari uchun ijozat berib, ularga Ma’badni qayta qurishni buyuradi. Ma’bad Yahudo xalqi orasidagi Xudoning huzurini bildirib, oʻtmish va kelajakni bogʻlab turadigan rishta boʻlib xizmat qiladi.

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

1–BOB

Shoh Sulaymon donolik so‘rab ibodat qiladi

1 Dovud o‘g‘li Sulaymon o‘z hokimiyatini mustahkamlab oldi. Egasi Xudo u bilan
birga bo‘lib, uni nihoyatda yuksaltirdi. 2 Sulaymon jamiki Isroil xalqini —
mingboshilarni, yuzboshilarni, hakamlarni, Isroilning hamma yo‘lboshchilarini va
urug‘boshilarini chaqirtirdi. 3 Sulaymon bilan butun jamoa Givondagi sajdagohga* yo‘l
olishdi. Egamizning quli Muso sahroda qurdirgan Xudoning Uchrashuv chodiri* o‘sha
davrda Givonda joylashgan edi. 4 Xudoning Ahd sandig‘i esa Dovudning tashabbusi bilan
Xirat–Yo‘rimdan Quddusga olib kelingan edi*, chunki Dovud Sandiq uchun Quddusda
bir joy tayyorlab, chodir o‘rnatib qo‘ygan edi. 5 Bazalil qurgan bronza qurbongoh esa
hanuz Givondagi Egamiz Muqaddas chodirining qarshisida joylashgan edi. Bazalil
Urining o‘g‘li va Xurning nevarasi edi. Sulaymon va jamoa qurbongoh oldida Egamizga
sajda qildilar. 6 So‘ng Sulaymon Egamizning oldida Uchrashuv chodirining qarshisidagi
o‘sha bronza qurbongoh ustiga chiqib, mingta qurbonlik kuydirdi.

7 O‘sha kuni kechasi Xudo Sulaymonga zohir bo‘lib, unga:

— Tila tilagingni! — dedi.

8 Sulaymon Xudoga aytdi:

— Sen otam Dovudga ulug‘ sevgingni ko‘rsatding. Meni uning o‘rniga shoh qilding.
9 Ey Parvardigor Egam! Otam Dovudga bergan va’dang ustidan chiq. Axir, Sen meni
yerning qumiday ko‘p bo‘lgan bir xalq ustidan shoh qilding. 10 Bu xalqni boshqara
olishim uchun menga donolik va ilmu ma’rifat bergin. Bo‘lmasa Sening shu qadar
behisob xalqingga kim hukmronlik qila oladi?!

11 Xudo Sulaymonga shunday javob berdi:

— Men seni xalqim ustidan shoh qildim. Sen o‘zing uchun mol–mulk, boylik, shon–
shuhrat yoki dushmanlaringning jonini so‘ramading, hatto o‘zingga uzoq umr ham
tilamading. Aksincha, Mening xalqimni boshqaray deb, donolik va ilmu ma’rifat
so‘raganing uchun 12 donolik va ilmu ma’rifat senga hadya bo‘lsin. Bularga qo‘shimcha
qilib senga boylik, mol–mulk va shon–shuhrat beraman, sengacha o‘tgan va sendan
keyin bo‘ladigan hech qaysi shoh senga teng kelmaydi.

13 Shundan keyin Sulaymon Givondagi sajdagohda joylashgan Uchrashuv chodiridan
Quddusga qaytib ketdi. U Isroil ustidan hukmronlik qila boshladi.

Shoh Sulaymonning boyligi

14 Sulaymon jang aravalari va otlarni to‘pladi. Uning 1400 ta jang aravasi va
12.000 ta oti* bor edi. Sulaymon bularning bir qismini jang aravalari saqlanadigan
shaharlarga va bir qismini Quddusga — o‘zining yoniga joylashtirdi. 15 Uning
hukmronligi davrida Quddusda oltinu kumush ko‘chadagi toshday ko‘p edi. Sadr
yog‘ochlari ham xuddi Yahudo qir etaklarida o‘sadigan oddiy shikamora–anjir
daraxtiday* serob edi. 16 Shohning savdogarlari Misrdan* va Quvedan Sulaymon uchun
otlar olib kelishardi. Ular otlarni Quvedan sotib olishardi. 17 Misrdan keltirilgan har bir
jang aravasi uchun 600 kumush tanga*, har bir ot uchun 150 kumush tanga* to‘lashardi.
So‘ng bularni barcha Xet shohlariga va Oram shohlariga sotishardi.

2–BOB

Ma’bad qurilishi uchun tayyorgarlik

1 Sulaymon Egamizga atab Ma’bad va o‘zi uchun shohona saroy bunyod etishga qaror
qildi. 2 Sulaymon 70.000 nafar yuk tashuvchini, qirlarda tosh kesadigan 80.000 nafar
sangtaroshni va bular ustidan nazoratchi qilib 3600 kishini yolladi.
3 Sulaymon Tir* shohi Xiramga shu xabarni yetkazdi:

“Bir vaqtlar siz otam Dovudga saroyini qurish uchun sadr yog‘ochlarini
jo‘natganingiz kabi, menga ham sadr yog‘ochlarini jo‘nating. 4 Men Egam Xudoga
atab bir uy qurmoqchiman. U yerda xushbo‘y tutatqilar tutatiladi, doimiy
ravishda muqaddas nonlar nazr qilinib, xontaxta ustiga teriladi. Ertalab va
kechqurunlari qurbonliklar kuydiriladi, shuningdek, Shabbat kunlarida, yangi oy
shodiyonalarida va Egamiz Xudo belgilagan bayramlarda kuydiriladigan
qurbonliklar keltiriladi. Isroil xalqi bularga doimo, avlodlar osha rioya qiladi.
5 Men qurmoqchi bo‘lgan uy hashamatli bo‘ladi, chunki Xudoyimiz boshqa
xudolardan buyukdir. 6 Lekin kim Unga bir uy qura olar?! U osmonga, hatto falak
toqiga ham sig‘maydi–ku! Men kim bo‘libmanki, Unga uy qura olsam?! Faqat
Unga qurbonliklar keltirish uchun bir joy tayyorlay olaman, xolos.
7 Shunday ekan, menga mohir bir ustani yuboring. U o‘ymakorlikdan tashqari,
oltin, kumush, bronza va temirga ishlov bera oladigan, safsar, qizil va ko‘k
matolar to‘qiy oladigan bo‘lsin. U Yahudo va Quddusda, otam Dovud saralagan
mohir ustalarim bilan birga ishlaydi.
8 Menga Lubnondan sadr, sarv va sandal yog‘ochlarini jo‘nating. Sizning
xizmatkorlaringiz Lubnon daraxtlarini kesishga usta ekanini bilaman. Mening
odamlarim sizning odamlaringiz bilan birga ishlaydilar. 9 Ular men uchun katta
miqdorda yog‘och tayyorlab berishsin. Men qurmoqchi bo‘lgan uy ulkan va
hashamatli bo‘lishi kerak. 10 Men yog‘och kesadigan xizmatkorlaringizga ish haqi
qilib 200.000 tog‘ora* yanchilgan bug‘doy, 200.000 tog‘ora arpa, 40.000 ko‘za*
sharob va 40.000 ko‘za zaytun moyi yuboraman.”

11 Shundan keyin Tir shohi Xiram maktub orqali Sulaymonga shunday javob berdi:

“Egamiz O‘z xalqini sevgani uchun ular ustidan sizni shoh qildi.”

12 Xiram yana shu gaplarni aytdi:

“Yeru ko‘kni yaratgan Isroil xalqining Xudosi — Egamizga hamdu sanolar
bo‘lsin. U shoh Dovudga dono, aqlli, fahm–farosatli o‘g‘il ato qilibdi. Shu o‘g‘il
Egamizga atab Ma’badni va o‘zi uchun saroyni bunyod qiladi.
13 Sizga Xurom ismli aqlli, mohir bir ustani yuboryapman. 14 Uning onasi —
Dan qabilasidan, otasi esa — Tirlik. Uning o‘zi oltin, kumush, bronza, temir, tosh
va yog‘ochga ishlov beradigan mohir ustadir. U safsar, ko‘k, qizil matolarni va
mayin zig‘ir matosini ham to‘qishni biladi, shuningdek, turli o‘ymakorlik ishlarini
bajara oladi, har qanday naqshni sola oladi. Xurom sizning ustalaringiz va
otangiz bo‘lmish xo‘jayinim Dovud yetishtirgan ustalar bilan birga ishlaydi.

15 Janobi oliylari! O‘zingiz aytgan bug‘doy, arpa, zaytun moyi, sharobni
qullaringizga yuboring. 16 Sizga kerak bo‘ladigan har qanday daraxtni biz
Lubnondan kesib beramiz, yog‘ochlardan sol qilib, dengiz sohili bo‘ylab Yaffaga*
qadar keltirib beramiz. Siz o‘sha yerdan yog‘ochlarni Quddusga olib ketaverasiz.”

Ma’bad qurilishi boshlandi

17 Shundan keyin Sulaymon otasi Dovud singari, Isroil yurtida istiqomat qilayotgan
musofirlarning hammasini ro‘yxatga oldi. Musofirlarning soni 153.600 kishi ekan.
18 Sulaymon ularning 70.000 nafarini og‘ir yuk tashuvchi, 80.000 nafarini qirlarda tosh
kesadigan sangtarosh, 3600 nafarini esa ishlayotganlar ustidan nazoratchi qilib
tayinladi.

3–BOB

1 Sulaymonning otasi shoh Dovud Egamizning uyi uchun Quddusda bir joy tayyorlab
qo‘ygan edi. Bu joy Moriyox tog‘ida — Dovudga Egamiz zohir bo‘lgan Yobuslik
Aravnoning* xirmonida edi. Sulaymon Egamizning uyini o‘sha yerda barpo qila
boshladi. 2 Qurilish Sulaymon hukmronligining to‘rtinchi yili ikkinchi oyining* ikkinchi
kunida boshlangan edi. 3 Sulaymon Xudoning uyi uchun poydevor qo‘ydi, poydevorning
uzunligi (qadimgi o‘lchov birligiga asosan) 60 tirsak*, eni 20 tirsak edi. 4 Uyning asosiy
xonasi oldida ayvon bo‘lib, ayvonning uzunligi asosiy xonaning eni bilan bir o‘lchovda —
20 tirsak, balandligi ham 20 tirsak* edi. Sulaymon ayvonning ichini toza oltin bilan
qoplatdi. 5 Asosiy xonaning devorlarini oldin sarv yog‘ochi bilan qoplatib, ustidan toza
oltinni qoplatdi, so‘ng xurmo daraxti va zanjirlar shakllarini o‘ydirib soldirdi. 6 Uyni
qimmatbaho toshlar bilan bezattirdi. Parvayimdan keltirilgan oltin bilan 7 uyning
to‘sinlarini, ostonalarini, devorlarini va eshiklarini qoplatdi. Devorlarga karublar*
suratini o‘ydirdi.

8 Sulaymon Eng muqaddas xonani ham qurdirdi. Bu xonaning uzunligi asosiy
xonaning eni bilan bir o‘lchovda — 20 tirsak, eni ham 20 tirsak edi. Sulaymon bu xonani
1300 pud* toza oltin bilan qoplatdi. 9 Ishlatilgan oltin mixlarning umumiy og‘irligi 125
misqol* edi. Yuqori xonalarning devorlari ham oltin bilan qoplandi.

10 So‘ng Sulaymon ikkita karub shaklini yasattirdi. Ularni oltin bilan qoplatib, Eng
muqaddas xonaga o‘rnashtirdi. 11-13 Karublar yonma–yon, kiraverishga qaratib qo‘yilgan
edi. Har birining ikkitadan qanoti bo‘lib, har bir qanotining uzunligi besh tirsak edi.
Qanotlar yoyilgan holda yasalgan bo‘lib, karublarning bir qanoti devorga tegib turar edi.
Ikkinchi qanoti esa xonaning markazida boshqa karubning qanotiga tegib turar edi.
Ikkala karubning yoyilgan qanotlari jami 20 tirsakni tashkil qilar edi. 14 Sulaymon ko‘k,
safsar, qizil matolardan va mayin zig‘ir matosidan ichki parda* qildirib, pardaning ustiga
karublar suratini soldirdi.

Ikki bronza ustun

15 Sulaymon 18 tirsak* balandlikdagi ikki ustun yasattirib, ularni Egamiz uyining old
tomoniga o‘rnatdi. Har bir ustun tepasida ustunqosh bo‘lib, ustunqoshning balandligi 5
tirsak edi. 16 Ustunqoshlar to‘qilgan zanjirlar va yuzta anor* tasviri bilan bezatilgan edi.
17 Ustunlar uyning oldiga — bittasi o‘ng tomonga, ikkinchisi chap tomonga o‘rnatilgan
edi. O‘ng tomondagi ustunga Yoxin* deb, chap tomondagisiga Bo‘az* deb nom berildi.

4–BOB

Ma’bad anjomlari

1 Shoh Sulaymon bronza qurbongoh yasattirdi. Qurbongohning uzunligi 20 tirsak*,
eni ham 20 tirsak, balandligi 10 tirsak edi. 2 Keyin bronzani eritib, dumaloq shaklda
hovuz yasatdi. Hovuzning bir qirg‘og‘idan narigi qirg‘og‘igacha 10 tirsak, balandligi esa
5 tirsak edi. Aylanasi 30 tirsak edi. 3 Hovuzning tashqi tomonida, qirg‘og‘i ostida
aylanasiga ikki qator buqa shakli bor edi. Har bir tirsak masofada o‘ntadan shunday
shakl qilingan edi. Bronza eritilib, hovuz yasalayotgan paytda, bu buqa shakllari ham
qilingan edi. 4 Hovuz bronzadan yasalgan o‘n ikkita buqa ustiga o‘rnashtirilgan edi.
Buqalarning uchtasi shimolga, uchtasi g‘arbga, uchtasi janubga va uchtasi sharqqa
qaratilgan edi. Buqalarning orqa tomoni hovuzning ichkarisiga qaratilgan edi.
5 Hovuzning qalinligi to‘rt enli bo‘lib, chetlari kosaning chetlariga o‘xshar, shakli
lolagulga o‘xshardi. Unga 6000 ko‘za* suv sig‘ardi.

6 Sulaymon o‘nta tog‘ora ham yasatdi. Tog‘oraning beshtasi hovuzning chap
tomoniga, beshtasi o‘ng tomoniga o‘rnatildi. Bu tog‘oralar qurbonlik qilib kuydiriladigan
hayvonlarni yuvish uchun mo‘ljallangan edi. Hovuz esa ruhoniylarning yuvinishi uchun
edi.

7-8 Sulaymon loyihaga binoan o‘nta oltin chiroqpoya bilan o‘nta xontaxta yasatib,
ularni Ma’badning asosiy xonasiga o‘rnattirdi. Beshta chiroqpoya bilan beshta
xontaxtani xonaning o‘ng tomoniga, qolgan beshta chiroqpoya bilan beshta xontaxtani
xonaning chap tomoniga o‘rnashtirdi. Bulardan tashqari, oltindan yuzta tog‘oracha ham
yasattirdi. 9 Sulaymon ruhoniylar uchun ichki hovlini qurdirdi. Bundan tashqari, u tashqi
hovlini qurdirib, ikki hovli orasiga eshiklar yasattirdi. Eshiklarni bronza bilan qoplatdi.
10 Hovuzni Egamiz uyining janubi–sharq tomonidagi burchagiga o‘rnattirdi.

11 Xurom qozonlar, kurakchalar va tog‘orachalar ham yasadi. Shunday qilib, u shoh
Sulaymon uchun Xudoning uyiga oid quyidagi ashyolarni yasab berdi:

12 ikkita ustun,
ustunlarning tepasidagi ikkita doira shaklidagi ustunqosh,
ustunqoshni o‘rab turgan ikkita to‘rsimon bezak,
13 ikkala bezakning yonlarida to‘rt yuzta anor* tasviri, ya’ni ustunlar tepasida
doira shaklidagi ikkita ustunqoshni qoplab turish uchun har bir to‘rsimon
bezakning ikkala chekkasidagi anor suratlari,
14 aravalar, aravalar ustidagi tog‘oralar,
15 bitta hovuz, hovuz ostidagi o‘n ikki buqa shakli,
16 qozonlar, kuraklar, sanchqilar va bularga aloqador barcha buyumlar.

Xurom shoh Sulaymon uchun Egamizning uyiga oid ana shu ashyolarni sayqallangan
bronzadan yasab berdi. 17 Shoh bu narsalarni Iordan vodiysi atroflarida — Suxot va
Zoraton* orasida loydan yasalgan qoliplarda quydirdi. 18 Sulaymon bu narsalarning
hammasini ko‘p miqdorda yasattirdi, shuning uchun ishlatilgan bronzaning hisobini
aniqlab bo‘lmadi.

19 Sulaymon Xudoning uyi uchun quyidagi hamma buyumlarni ham yasattirdi:

oltindan yasalgan tutatqi qurbongohi,
ustida muqaddas nonlar* turadigan xontaxtalar,
20 toza oltindan ishlangan chiroqpoyalar va ularning moychiroqlari, bular
loyihaga binoan, Eng muqaddas xonaning oldida yonib turishi kerak edi,
21 yana toza oltindan gullar, moychiroqlar, qisqichlar,
22 qaychilar, tog‘orachalar, kurakchalar va olovkuraklar yasatdi. Eng muqaddas
xona va asosiy xona eshiklari ham toza oltindan yasalgan edi.

5–BOB

1 Shunday qilib, Sulaymon Egamizning uyiga oid hamma ishlarni bitirdi. So‘ngra u otasi Dovud nazr qilgan narsalarni olib kelib, kumush, oltin va hamma buyumlarni Xudoning uyi xazinasiga qo‘ydi.

Ahd sandig‘i Ma’badga keltiriladi

2 Shundan so‘ng Sulaymon Egamizning Ahd sandig‘ini Dovud qal’asidan* — Siondan Egamizning uyiga olib kelmoqchi bo‘ldi. Shu maqsadda u Isroil oqsoqollarini, hamma qabila yo‘lboshchilarini, Isroil xalqi urug‘boshilarini Quddus shahriga chaqirtirdi.
3 Ularning hammasi yettinchi oyda*, Chayla bayrami* paytida shohning huzuriga yig‘ilishdi.
4 Isroil oqsoqollarining hammasi kelgach, levilar Sandiqni yerdan ko‘tarishdi.
5 Ruhoniylar va levilar, Sandiq bilan birga Uchrashuv chodirini*, Chodirdagi barcha muqaddas buyumlarni Egamizning uyiga olib kelishdi. 6 Shoh Sulaymon va to‘plangan butun Isroil jamoasi Sandiqning oldida qo‘ylar, buqalar so‘yib qurbonlik qilishdi. Qurbonlik qilingan qo‘y va buqalar shu qadar ko‘p ediki, hisobiga yetib bo‘lmasdi.
7 Ruhoniylar Egamizning Ahd sandig‘ini alohida atalgan joyga — Eng muqaddas xonaga, karublarning qanotlari ostiga qo‘yishdi. 8 Karublarning qanotlari Sandiq usti bo‘ylab cho‘zilgan va Sandiq hamda uning xodalarini berkitib turardi. 9 Xodalar shunchalik uzun ediki, ularning uchi Eng muqaddas xonaning shundaygina oldidan ko‘rinib turardi, boshqa joydan esa ko‘rinmasdi. Xodalar bugungacha* ham o‘sha yerda turibdi. 10 Sandiqning ichida ikkita tosh lavhadan boshqa hech narsa yo‘q edi. Isroil xalqi Misrdan chiqqandan keyin, Egamiz Sinay tog‘ida* ular bilan ahd tuzgan edi. O‘shanda Muso bu tosh lavhalarni Sandiq ichiga solib qo‘ygan edi.
11-14 Bu yerda hozir bo‘lgan ruhoniylarning hammasi, qaysi guruhga qarashli bo‘lishidan qat’i nazar, o‘zlarini poklagan edilar. Jamiki levi sozandalari — Osif, Xaman, Yodutun, ularning o‘g‘illari va qarindoshlari mayin zig‘ir matosidan tikilgan liboslarni kiyib olgan edilar. Levilar zil, arfa va liralarni ko‘tarib qurbongohning sharq tomonida turdilar. Ularning yonidan karnay chaladigan 120 nafar ruhoniy joy oldi. Sozandalaru karnaychilar jo‘r bo‘lib, Egamizga hamdu sano va shukrona aytar edilar. Karnay, zil va boshqa sozlar jo‘rligida qo‘shiqchilar Egamizga shunday hamdu sano kuylar edilar:

“Egamiz yaxshidir,
Uning sodiq sevgisi abadiydir.”

Ruhoniylar Muqaddas xonadan chiqib ketayotganlarida, birdaniga Xudoning uyini bulut qoplab, Egamizning ulug‘vorligi uyni to‘ldirdi. Shuning uchun ruhoniylar o‘z

xizmatini davom ettira olmadilar.

6–BOB

Sulaymonning nutqi

1 Shunda Sulaymon ibodat qildi:

— Ey Egamiz! Sen, zimziyo zulmatda maskan qilaman, degan eding. 2 Mana endi Senga ajoyib bir uy, abadiy istiqomat qilishing uchun bir maskan barpo qildim.

3 Keyin shoh orqasiga qayrilib, tik turgan jamiki Isroil jamoasini duo qildi. 4 Shoh dedi:

> “Isroil xalqining Xudosi — Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin. U otam Dovudga bergan va’dasini bajardi. 5 Egamiz otamga shunday degan edi*: «Xalqim Isroilni Misrdan olib chiqqan kunimdan beri Men ulug‘lanadigan uyni barpo qilish uchun Isroil qabilalarining birorta shahrini tanlamagan edim, birorta odamni xalqimga hukmron qilib saylamagan edim. 6 Mana endi esa ulug‘lanishim uchun Quddusni tanladim. Men seni, ey Dovud, xalqim Isroil ustidan hukmdor bo‘lgin deb tanladim.»
>
> 7 Isroil xalqining Xudosi — Egamizga atab bir uy barpo qilmoq otam Dovudning niyati edi. 8 Lekin Egamiz otam Dovudga shunday deb aytdi: «Modomiki, Menga atab bir uy barpo qilmoqni ko‘nglingga tukkan ekansan, yaxshi qilibsan. 9 Biroq Menga atab o‘sha uyni sen emas, balki sening pushti kamaringdan bino bo‘ladigan o‘g‘ling barpo qiladi.»
>
> 10 Egamiz va’da bergan edi, bajo ayladi: otam Dovudning o‘rniga taxtga men chiqdim, Egamiz va’da etganiday, Isroil taxtiga o‘tirdim, Isroil xalqining Xudosi — Egamizga atab bir uy barpo qildim. 11 O‘sha uyga Ahd sandig‘ini o‘rnashtirdim. Egamizning Isroil xalqi bilan qilgan ahd lavhalari shu Sandiqning ichida turibdi.”

Sulaymonning ibodati

12 Sulaymon Egamizning qurbongohi oldida, Isroil jamoasi ro‘parasida qo‘llarini ko‘kka cho‘zdi. 13 U supaning ustida turar edi. Bu supani Sulaymon bronzadan yasattirib, uni hovlining o‘rtasiga o‘rnattirgan edi. Supaning uzunligi besh tirsak, eni ham besh tirsak, balandligi uch tirsak* edi. Sulaymon butun Isroil jamoasi oldida tiz cho‘kib, qo‘llarini ko‘kka cho‘zgancha, 14 ibodat qila boshladi:

> “Ey Isroil xalqining Xudosi — Egamiz! Yer yuzida ham, osmonu falakda ham Senga o‘xshashi yo‘q! Senga butun qalbi bilan bog‘lanib, Sen ko‘rsatgan yo‘ldan yuradigan qullaringga O‘zing ahdingni sodiq saqlaysan. 15 Quling — otam Dovudga Sen O‘z og‘zing bilan bergan va’dalaringni bugun O‘z qo‘ling bilan bajo aylading.
>
> 16 Ey Isroil xalqining Xudosi — Egamiz! O‘zingning qulingga — otam Dovudga: «Bolalaring ham senga o‘xshab qonunlarimga rioya qilib, o‘ylab qadamini bossalar, sening naslingdan bo‘lgan erkak zoti to abad Isroil taxtida o‘tiradi», — deb va’da bergan eding. Endi bergan va’dangni ado et! 17 Ey Isroil xalqining Xudosi — Egamiz! Quling Dovudga aytganlaring amalga oshsin, deb iltijo qilaman.

18 Ey Xudo, Sen yer yuzida inson zoti bilan yasharmiding?! Sen osmonga,
hatto falak toqiga ham sig‘massan. Falak toqi oldida men qurgan uy nima
bo‘libdi?! 19 Ey Egam Xudo, iltijo bilan qilgan ibodatimni qabul et! Senga yolvorib
qilayotgan iltijolarimga javob ber. 20 Sen: «Men o‘sha yerda ulug‘lanay», deb
aytgan eding. Ko‘zlaring kechayu kunduz o‘sha joyga — o‘sha uyga qadalib
tursin. Men, quling, o‘sha tomonga qarab ibodat qilaman, ibodatlarimni tingla.
21 Isroil xalqi bilan birga o‘sha tomonga qarab qilgan iltijolarimizga quloq tut.
Samolardan — O‘z makoningdan turib quloq sol, eshitgin–u, gunohimizdan o‘t.
22 Kimdir gunohkorlikda ayblansa, o‘sha odam kelib, shu uyingdagi
qurbongohing oldida, aybsizman, deb ont ichsa, 23 ey Egam, samodan turib quloq
sol, qullaringni O‘zing hukm et. Gunohkorning qilmishini bo‘yniga qo‘y, jazosini
ber. Gunohsizning esa haqligini ko‘rsat, haq bo‘lgani uchun uni ozod qil.
24 Xalqing Isroil Sening oldingda gunoh qilgani uchun yovga mag‘lub bo‘lsa,
yana qaytib Seni tan olsa, o‘sha uyda Senga yolvorib iltijo qilsa, 25 Sen samodan
turib, ularning iltijolariga quloq sol, gunohlaridan o‘t. Otalariga va ularga O‘zing
tomondan berilgan yurtga ularni qaytar.
26 Ular Senga qarshi gunoh qilganlari uchun osmon berkilib, yomg‘ir
yog‘maganda, ular o‘sha uyga qarab, Seni yana tan olib iltijo qilsalar, Sen ularni
gunohlari uchun jazolaganingda, tavba qilsalar, 27 qullaring Isroil xalqiga
samodan turib quloq sol, ularning gunohidan o‘t. Ularga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsat, toki
o‘sha yo‘ldan yursinlar, keyin xalqingga mulk qilib bergan yerga yomg‘ir yog‘dir.
28 Yurtda ocharchilik yo o‘lat paydo bo‘lsa, garmsel*, zang kasali, chigirtka*,
qurt–qumursqa bossa yoki xalqingni yovlar qamal qilsa, yoxud kulfat, xastalik
ularning boshiga kelsa, 29 har qanday inson yoki xalqing Isroil Senga yolvorib
ibodat qilsa, har kim o‘z dard–hasratini aytib, bu uy tomon qo‘llarini cho‘zsa, 30-
31 Sen samodan — maskaningdan turib quloq sol va ularning gunohidan o‘t. Har
birining tutgan yo‘liga qara, xizmatiga yarasha ber, toki Sen O‘zing ota–
bobolarimizga bergan yurtda ular umrlarining oxirigacha Sendan qo‘rqib, Sening
yo‘llaringdan yursinlar. Zotan, jamiki inson bolasining ko‘nglidagini yolg‘iz Sen
bilasan, xolos.
32 Xalqing Isroildan bo‘lmagan begona odam Seni deb uzoq yurtdan kelsa,
Sening shuhrating, qudrating va ajoyibotlaring haqida eshitib, o‘sha uyga qarab
ibodat qilsa, 33 Sen makoningdan turib quloq sol. O‘sha odamning so‘raganini
bajo ayla, toki yer yuzidagi hamma xalqlar Seni bilsin, xalqing Isroil kabi Sendan
hayiqadigan bo‘lsin. Men barpo qilgan shu uy Senga atab qilinganini bilsin.
34 Sen xalqingni g‘animlariga qarshi jang qilishga yuborganingda, ular O‘zing
tanlab olgan bu shaharga, Senga atab men qurgan uyga yuz burib, ibodat qilsalar,
35 samodan turib ularning iltijolarini eshit, bajo ayla.
36 Sening oldingda ular gunoh qilganlarida, chunki gunoh qilmaydigan
odamning o‘zi yo‘q, Sen g‘azablanib, ularni yaqin yoki uzoq yurtlarga asir qilib
olib ketadigan dushmanlarning qo‘liga berganingda, 37 ular g‘animlari yurtida
asirlikda yurib, esini yig‘ib olgach: «Gunoh qildik, shakkoklik qildik, aybdormiz»,
deb tavba qilib, Senga yolvorsalar, 38 asir bo‘lgan yurtda butun qalbi bilan, jonu
dili bilan Senga qaytsalar, O‘zing ota–bobolariga bergan yurtga, O‘zing tanlab
olgan shaharga, Senga atab men qurgan uyga yuz burib, ibodat qilsalar,

39 samodan — makoningdan turib ularning qilgan iltijolarini eshit, bajo ayla.
Xalqing Senga qarshi qancha gunoh qilgan bo‘lmasin, ularni kechir.
40 Endi, ey Xudoyim, bizga nazar sol, shu joyda qilgan ibodatlarimizga quloq
tut.

41 Qani, ey Parvardigor Egam, kel oromgohingga
Qudrating ramzi bo‘lgan Sandiq bilan birga.
Ey Parvardigor Egam!
Ruhoniylaring najot kiyimlarini kiyishsin.
Taqvodorlaring ezguligingdan shod bo‘lishsin.
42 Ey Parvardigor Egam!
Tanlagan shohingni rad qilmagin!
Quling Dovudga ko‘rsatgan sevgingni yodingda tutgin.”

7–BOB

Ma’bad Egamizga bag‘ishlanadi

1 Sulaymon ibodat qilib bo‘lishi bilanoq, osmondan alanga tushib, kuydiriladigan va boshqa qurbonliklarni yamlab yubordi. Egamizning ulug‘vorligi Ma’badni to‘ldirdi.
2 Shuning uchun ruhoniylar Egamizning uyiga kira olmadilar. 3 Jamiki Isroil xalqi olov tushganini va Egamizning ulug‘vorligi Ma’badni to‘ldirganini ko‘rgach, hammalari yerga muk tushib, ta’zim qildilar va Egamizga sajda qilib, Unga shukrona aytdilar:

“Egamiz yaxshidir,
Uning sodiq sevgisi abadiydir.”

4 Shundan keyin shoh va barcha xalq Egamizga atab qurbonlik qildilar. 5 Shoh Sulaymon 22.000 buqani, 120.000 qo‘yni Egamizga atab qurbonlik qildi. Shu tariqa shoh va butun xalq Ma’badni Egamizga bag‘ishladilar. 6 Ruhoniylar o‘z joylarini egalladilar. Levilar ham musiqa asboblarini ko‘tarib, ruhoniylar singari o‘z joylariga turdilar. Dovud bu musiqa asboblarini Egamizga hamdu sano aytish uchun yasattirgan edi, Dovudning o‘zi Egamizni madh etib, “Uning sodiq sevgisi abadiydir” deb hamdu sano aytganda, o‘sha musiqa asboblaridan foydalangan edi. Xalq tik turar, levilarning qarshisidan joy olgan ruhoniylar esa karnaylar chalardilar.
7 Sulaymon Egamizning uyi oldidagi hovli o‘rtasini ham muqaddas qildi. So‘ng o‘sha yerda kuydiriladigan qurbonliklar, don nazrlari va tinchlik qurbonliklarining yog‘ini nazr qildi, chunki bularning hammasi u yasattirgan bronza qurbongoh ustiga sig‘magan edi.
8 Keyin Sulaymon va u bilan birga nihoyatda katta jamoa — Levo–Xomatdan* tortib, Misr chegarasidagi irmoqqa* qadar yerlarda yashaydigan butun Isroil xalqi yetti kun davomida Chayla bayramini* nishonlashdi. 9 Ular yetti kun qurbongohning Xudoga bag‘ishlanishini nishonlashdi, keyin yana yetti kun Chayla bayramini qilishdi. Chayla bayramidan keyin* muqaddas yig‘in qilishdi. 10 Yettinchi oyning* yigirma uchinchi kuni Sulaymon xalqni o‘z uylariga jo‘natdi. Egamizning Dovudga, Sulaymonga va Isroil xalqiga ko‘rsatgan muruvvati tufayli hammaning ko‘ngli shodlikka to‘lgan edi.
11 Sulaymon Egamizning uyini ham, o‘zining saroyini ham qurib bo‘ldi. Mo‘ljallangan

hamma yumushlarni muvaffaqiyat bilan tamom qildi.

Xudo Sulaymonga zohir bo‘ladi

12 Keyin Egamiz kechasi Sulaymonga zohir bo‘lib, unga aytdi:

“Menga qilgan iltijolaringni eshitdim, bu uyni O‘zimga qurbonliklar
keltiriladigan joy qilib tanladim. 13 Yomg‘ir yog‘masin deb, osmonni
berkitganimda, yoki chigirtkalarga*, yer yuzini yeb bitiringlar deb, amr
berganimda, yoxud xalqimning orasiga o‘lat kasalini yuborganimda, 14 Mening
nomim bilan atalgan xalqim tavba qilib, Menga iltijo qilsa, Menga yuz burib qabih
yo‘llaridan qaytsa, Men osmondan turib ularning iltijolarini eshitaman,
gunohlarini kechirib, yurtiga shifo beraman. 15 Endi sizlarga nazarimni solaman,
bu joyda qilgan ibodatlaringizga quloq tutaman. 16 Men to abad ulug‘lanishim
uchun bu uyni tanlab, muqaddas qildim. Bu uydan ko‘zimni uzmayman, qalbim u
yerni maskan qiladi.

17 Agar sen Mening oldimda otang Dovud kabi yursang, Men amr etgan
hamma farmonlarimni ijro etsang, qonun–qoidalarimni mahkam tutsang,
18 shohlik taxtingni abadiy mustahkam qilaman. Shunda otang Dovud bilan
tuzgan ahdim, unga: «Sening naslingdan bo‘lgan erkak zoti to abad Isroilda
hukmronlik qiladi», deb aytgan gaplarim* amalga oshadi. 19 Bordi–yu, sen va
sening nasling yo‘limdan qaytsangiz, bergan amr va farmonlarimni tark etsangiz,
borib boshqa xudolarga xizmat qilsangiz, ularga topinsangiz, 20 sizlarni O‘zim
bergan yurtdan qo‘porib tashlayman. Ulug‘lanishim uchun muqaddas qilgan bu
uyni tark etaman. Ana o‘shanda bu uy hammaning og‘zida duv–duv gap bo‘ladi,
hamma xalqlar uyimni masxara qiladi. 21 Hozir ajoyib bo‘lib turgan uyning
yonidan o‘tganlar dahshatga tushadilar:

— Nimaga ularning Egasi bu yurtni va bu uyni mana shu ahvolga soldi ekan–
a? — deydigan bo‘ladilar. 22 So‘ng yana o‘zlari shunday xulosa chiqaradilar:

— Eha, ular ota–bobolarini Misr yurtidan olib chiqqan Egasi Xudodan yuz
o‘girdilar–ku! Boshqa xudolarga ergashib, o‘sha xudolarga topinib, xizmat
qildilar–ku! Qilmishlariga yarasha o‘zlarining Egasi ularning boshiga shu
ko‘rgiliklarni solibdi–da.”

8–BOB

Shoh Sulaymonning erishgan yutuqlari

1 Sulaymon Egamizning uyini va o‘z saroyini yigirma yilda bitirgan edi. 2 So‘ngra u
shoh Xiram bergan shaharlarni qaytadan qurib, Isroil xalqini o‘sha shaharlarga
joylashtirdi.

3 Sulaymon Xomat–Zo‘voga* yurish qilib, u joyni qo‘lga kiritdi. 4 U sahrodagi Tadmo‘r
shahrini va Xomatdagi ombor shaharlarni tuzatib mustahkamladi. 5 U yana Tepadagi
Bayt–Xo‘ronni va Pastki Bayt–Xo‘ronni qaytadan qurdi, bu shaharlarni devor bilan
o‘radi, tambalanadigan darvozalar o‘rnatdi. 6 Baalat shahrini, o‘zining hamma ombor
shaharlarini, hamma jang aravalari saqlanadigan shaharlarni, otliqlari* turadigan
shaharlarini qaytadan tuzatib mustahkamladi. Bundan tashqari, Quddusda, Lubnonda,
shohlikning hamma burchaklarida nima istasa, barpo qildi. 7 Kan’onda qolib ketgan

Amor, Pariz, Xiv, Xet va Yobus xalqlari Isroil xalqidan emasdi. 8 Isroil xalqi ularning bu yurtda qolib ketgan avlodlarini qirib bitirmagan edi. Sulaymon o‘sha qolib ketganlarini qarol qilib oldi. Ular bugungacha* bor. 9 Lekin Sulaymon Isroil xalqidan birortasini qarollik uchun qul qilmadi. Aksincha, ularni shohning sipohlari, a’yonlari, jang aravalarining qo‘mondonlari va suvorilarining qo‘mondonlari lavozimiga tayinladi. 10 Sulaymonning ishboshilari 250 kishi bo‘lib, ular odamlar ustidan nazoratchi edilar.

11 Sulaymon fir’avnning qizini Dovud qal’asidan unga atab barpo qilgan yangi saroyga ko‘chirtirdi. U shunday degan edi: “Mening xotinim Dovud qal’asida ortiq yashay olmaydi, chunki Egamizning Sandig‘i saqlangan har qanday joy muqaddasdir.”

12 Sulaymon Ma’bad ayvonining qarshisida qurgan qurbongoh ustida Egamizga qurbonliklar kuydira boshladi. 13 Bu qurbonliklarni u Musoning talablariga rioya qilgan holda, Shabbat kunlarida, yangi oy shodiyonalarida va yilda bir martadan nishonlanadigan Xamirturushsiz non bayramida, Hosil bayramida* va Chayla bayramida keltirar edi. 14 Sulaymon, otasi Dovud joriy qilgan qoidaga ko‘ra, ruhoniylar va levilarning xizmatlarini taqsimlab berdi. Levilar Egamizni madh qilishda va kundalik ishlarda ruhoniylarga yordam berardilar. Sulaymon Ma’bad darvozabonlarini ham guruhlarga bo‘lib, har bir darvozada ularning har kuni qiladigan ishlarini taqsimlab berdi. U bularning hammasini Xudoning odami Dovudning farmoniga muvofiq qildi. 15 Shoh Dovudning ruhoniylarga, levilarga, xazinalarga va boshqa narsalarga oid birorta ko‘rsatmasi e’tibordan chetda qolmadi.

16 Shunday qilib, Sulaymon hamma ishni o‘z nihoyasiga yetkazdi. Egamiz uyining poydevori qo‘yilgandan boshlab, to uy tamomila qurilib bo‘lguncha bajarilgan hamma ish muvaffaqiyatli bo‘ldi. 17 Shundan so‘ng Sulaymon Edom yurtidagi Qizil dengiz* qirg‘og‘ida joylashgan Ezyo‘n–Geber va Elet shaharlariga ketdi. 18 Shoh Xiram o‘z kemachilari va tajribali dengizchilari boshchiligida kemalarni Sulaymonga jo‘natdi. Ular Sulaymonning odamlari bilan birga Ofir yurtiga* suzib borib, u yerdan Sulaymonga 960 pud* oltin keltirib berdilar.

9–BOB

Shava malikasi Quddusga tashrif buyuradi

1 Shava* malikasi Sulaymonning dong‘ini eshitgach, Quddusga keldi. U Sulaymonga topishmoqlar aytib sinab ko‘rmoqchi edi. Malika o‘zi bilan juda ko‘p miqdorda oltin va qimmatbaho toshlar, xushbo‘y ziravorlar yuklangan katta karvonni boshlab kelgan edi. Malika Sulaymonning huzuriga kirgach, ko‘nglida nima bo‘lsa, hammasini unga aytdi. 2 Sulaymon malikaning hamma savollariga javob berdi, malikaning bironta savoliga javob berishda qiynalmadi. 3 Shava malikasi Sulaymonning donoligini, u qurgan saroyni, 4 dasturxonidagi noz–ne’matlarni, xizmatkorlarining yashash sharoitlarini, shoh soqiylariyu* bakovullarini* hamda ularning xizmat liboslarini, Egamizning uyida shoh Sulaymon kuydirib, nazr qilgan qurbonliklarni* ko‘rdi. Malika g‘oyat hayratlanib, 5 shohga dedi:

— Sizning ishlaringiz, donoligingiz haqida yurtimda eshitganlarim to‘g‘ri ekan. 6 Kelib o‘z ko‘zlarim bilan ko‘rmagunimcha, gap–so‘zlarga ishonmagan edim. Menga donoligingizning hatto yarmini ham aytishmagan ekan. Men eshitgandan ham ortiq bo‘lib chiqdingiz! 7 Naqadar baxtiyordir odamlaringiz! Omadlidir xizmatkorlaringiz! Ular

doimo huzuringizda bo‘lib, donoligingizdan bahra olishar. 8 Sizdan mamnun bo‘lib, O‘z
vakili sifatida sizni Isroil taxti uzra o‘tqazgan Egangiz Xudoga hamdu sanolar bo‘lsin. U
Isroilni to abad sevgani uchun adolat va to‘g‘rilik bilan hukm etsin deb, sizni shoh qilgan
ekan.
9 Malika Sulaymonga 250 pud* oltin, behisob xushbo‘y ziravorlar va qimmatbaho
toshlar hadya qildi. Shava malikasi hadya qilgan xushbo‘y ziravorlarning sifati shu
qadar yuqori ediki, ularga teng keladigani yo‘q edi.
10 Xiram bilan Sulaymonning Ofirdan oltin olib kelgan xizmatkorlari sandal daraxti
yog‘ochlari va qimmatbaho toshlarni ham keltirgandilar. 11 Shoh o‘sha yog‘ochlardan
Egamizning uyi uchun ham, shoh saroyi uchun ham zinalar, musiqachilar uchun lira va
arfalar yasattirdi. Bularga o‘xshaganini Yahudo yurtida hech kim hech qachon
ko‘rmagan.
12 Shoh Sulaymon Shava malikasiga istaganini va so‘raganining hammasini muhayyo
qildi, malikaga olib kelganidan ham ziyodroq narsa berdi. Shundan keyin malika hamma
odamlarini ergashtirib o‘z yurtiga jo‘nab ketdi.

Shoh Sulaymonning boyligi

13 Har yili Sulaymonga kelib turadigan oltinning og‘irligi 1425 pud* edi. 14 Odamlar
va savdogarlarning oldi–sotdisidan olinadigan soliq bunga kirmasdi. Arab shohlari va
Isroil hokimlari ham Sulaymonga oltin, kumush olib kelishardi. 15 Shoh Sulaymon
oltindan ikki yuzta katta qalqon yasattirdi. Har bir qalqonni yasashga yarim pud* oltin
sarf bo‘ldi. 16 Yana oltindan uch yuzta kichik qalqon ham yasattirdi. Har bir qalqon
uchun 400 misqol oltin* sarflandi. Shoh bu qalqonlarni “Lubnon o‘rmoni” degan uyiga*
qo‘ydi.
17 U yana fil suyagidan katta taxt yasatib, uni toza oltin bilan qoplatdi. 18 Taxtning
oltita pog‘onasi va o‘rindiqqa ulangan oltin oyoq kursisi bor edi. O‘rindiqning ikki
tomonida tirsagi bor edi. Tirsaklarning yonida ikkita sher tasviri turardi. 19 Har bir
pog‘onaning ikki chekkasida ham bittadan sher tasviri bo‘lib, taxtning olti pog‘onasida
jami o‘n ikkita sher tasviri bor edi. Bunday taxt boshqa birorta shohlikda bo‘lmagan edi.
20 Shoh Sulaymonning ichimlik ichadigan hamma idishlari oltindan, “Lubnon o‘rmoni”
degan uyidagi hamma idishlar ham toza oltindan edi. Sulaymon davrida kumush
arzimas narsa bo‘lib qolgan edi. 21 Dengizda, Xiramning kemalari qatorida,
Sulaymonning ham savdo kemalari* bo‘lib, bu kemalar har uch yilda oltin, kumush, fil
suyagi, turli–tuman maymunlar* olib qaytardi.
22 Shunday qilib, Sulaymon boylikda ham, donolikda ham yer yuzidagi hamma
shohlardan o‘tib ketdi. 23 Sulaymonga Xudo bergan donolikni eshitmoq uchun yer
yuzidagi hamma shohlar uning oldiga kelgani oshiqardi. 24 Kelganlarning har biri
kumush va oltin idishlar, kiyim, qurol–aslaha, xushbo‘y ziravorlar, ot va xachirlar hadya
qilib olib kelar edi. Bunday hol yillab davom etardi.
25 Sulaymonning otlari va jang aravalari uchun 4000 ta otxonasi, bulardan tashqari,
12.000 ta uchqur oti* ham bor edi. Sulaymon otlarning bir qismini aravalar
saqlanadigan shaharlarga, ikkinchi qismini o‘z yoniga — Quddusga joylashtirgan edi.
26 U Furot daryosidan to Filistlar yeriga qadar va Misr chegaralariga qadar bo‘lgan
hamma shohlar ustidan hukmronlik qilardi. 27 Uning hukmronligi davrida Quddusda
kumush ko‘chadagi toshday ko‘p edi. Sadr yog‘ochlari ham xuddi Yahudo qir etaklarida

oʻsadigan oddiy shikamora–anjir daraxtiday* serob edi. 28 Shohning savdogarlari Sulaymon uchun Misrdan* va boshqa barcha yurtlardan otlar olib kelishardi.

Sulaymonning oʻlimi

29 Sulaymonning boshqa ishlari boshdan oxirigacha Natan paygʻambarning tarix kitobida, Shiloʻlik Oxiyoning bashoratlarida va valiy Yiddoning vahiylarida bayon etilgan. Valiy Yiddoning vahiylarida Nabat oʻgʻli Yeribom hukmronligi toʻgʻrisida ham yozilgan. 30 Sulaymon Quddusda butun Isroil ustidan hukmdor edi. Uning hukmronligi qirq yil davom etdi. 31 Sulaymon olamdan oʻtdi. U otasi Dovud qal'asida, ota–bobolari yoniga dafn qilindi. Uning oʻrniga oʻgʻli Raxabom shoh boʻldi.

10–BOB

Shimoldagi qabilalar qoʻzgʻoloni

1 Raxabom Shakam shahriga* ketdi. Jamiki Isroil xalqi* ham, Raxabomni shoh qilib koʻtaramiz deb, Shakamga kelishdi. 2 Nabat oʻgʻli Yeribom bu haqda eshitib, Misrdan qaytdi. U Sulaymonning dastidan Misrga qochgan edi. 3 Isroil xalqi odam yuborib, uni chaqirtirib keldi. Soʻng Yeribom bilan birgalikda hammasi Raxabom huzuriga kelib, unga shu gapni aytishdi:

4 — Otangiz bizga ogʻir boʻyinturuq solib, ogʻir mehnat qilishga bizni majburlagan edi. Endi siz mehnatimizni yengillatib, bizni boʻyinturuqdan xalos qiling. Oʻshanda biz sizga itoat etamiz.

5 — Uch kundan keyin huzurimga kelinglar, — dedi Raxabom kelganlarga.

Shunday qilib, xalq qaytib ketdi.

6 Shoh Raxabomning otasi Sulaymon hayotligi davrida oqsoqollar har doim uning oldida hoziru nozir edilar. Shoh oʻsha oqsoqollarga maslahat soldi:

— Sizlar nima deysizlar, bu xalqqa nima deb javob bersam boʻladi?

7 Oqsoqollar shohga shunday deb maslahat berishdi:

— Agar siz bu xalqqa mehr koʻrsatib, ularni mamnun qilsangiz, ulardan yaxshi soʻzingizni ayamasangiz, ular sizga bir umr xizmat qiladilar.

8 Lekin shoh oqsoqollarning maslahatini rad qildi. Birga oʻsgan va oʻziga xizmat qilayotgan yosh yigitlar bilan maslahatlashdi. 9 Shoh oʻsha yigitlarga dedi:

— Bu xalq menga: "Otangiz bizga solgan ogʻir boʻyinturuqdan endi bizni siz xalos qiling", deyapti. Ularga nima deb javob berayin? Sizlar qanday maslahat berasizlar?

10 Raxabom bilan birga oʻsib–ulgʻaygan yosh yigitlar unga shunday maslahat berishdi:

— Arz qilgan oʻsha xalqqa shunday deb ayt: "Mening jimjilogʻim otamning belidan ham yoʻgʻon. 11 Otam sizlarga ogʻir boʻyinturuq solgan edi, endi men undan ham battarrogʻini qilaman. Otam sizlarni qamchi bilan jazolagan ekan, men esa chayonlarga chaqtirib, jazolayman."

12 Raxabom Yeribomga va xalqqa: "Uchinchi kuni huzurimga kelinglar", deb aytgani uchun xalq aytilgan paytda shoh Raxabomning huzuriga keldi. 13-14 Shoh oqsoqollarning bergan maslahatlarini pisand qilmay, yosh yigitlarning gapiga kirib, xalqqa keskin javob berdi:

— Otam sizlarga ogʻir boʻyinturuq solgan edi, endi men undan ham battarrogʻini qilaman. Otam sizlarni qamchi bilan urib jazolagan ekan, men esa chayonlarga chaqtirib

jazolayman.
15 Shunday qilib, shoh xalqqa quloq solmadi. Egamizning Shiloʻlik Oxiyo orqali Nabat oʻgʻli Yeribomga bergan soʻzi* bajo boʻlishi uchun Xudo bu voqeani shunday rejalashtirgan edi. 16 Isroil xalqi qarasaki, shoh gapga quloq solmayapti. Shundan keyin xalq unga shunday xitob qildi:

"Essay oʻgʻli Dovudning bizga oʻtkazib qoʻygan joyi yoʻq,
Bizning ham undan qarzimiz yoʻq!
Ey Isroil xalqi, har biringiz oʻz uyingizga qayting!
Ey Dovud, endi oʻz koʻmachingga oʻzing kul tortaver!"

Shunday qilib, Isroil xalqi uylariga tarqalib ketdi. 17 Raxabom faqat Yahudo shaharlarida yashaydigan Isroil xalqi ustidangina hukmronlik qiladigan boʻlib qoldi.
18 Shoh Raxabom qarollar boshligʻi Odoniramni* Isroil xalqi oldiga yuborgan edi, Isroil* xalqi uni toshboʻron qilib oʻldirdi. Bu xabarni shoh Raxabom eshitdi–yu, shosha–pisha jang aravasiga minib Quddusga qochdi. 19 Isroil xalqi oʻsha kundan boshlab Dovud xonadonidan yuz oʻgirdi.

11–BOB

Shamayoning bashorati

1 Raxabom Quddusga kelib, Yahudo va Benyamin qabilalaridan 180.000 odamni sipohlikka tanlab oldi. "Shohlikni qaytarib olaman" degan maqsadda ularni Isroil xalqiga qarshi jang qilish uchun tayyorladi. 2 Lekin oʻshanda Shamayo paygʻambarga Egamizning quyidagi soʻzlari ayon boʻldi:
3 — Yahudo shohi Sulaymon oʻgʻli Raxabomga hamda Yahudo va Benyamin hududlarida istiqomat qilayotgan butun Isroil xalqiga shu gaplarni yetkaz: 4 "Egamiz shunday deb aytmoqda: qarindoshlaringizga qarshi urush boshlamanglar! Har kim oʻz uyiga qaytsin! Chunki bu ishlar hammasi Mendan boʻldi."
Ular Egamizning amriga itoat etib, Yeribomga qarshi urush qilmadilar.
5 Raxabom Quddusda yashadi, u mudofaa uchun Yahudodagi quyidagi shaharlarni mustahkamladi: 6 Baytlahm, Etom, Taxuva, 7 Bayt–Zur, Soʻxu, Adullam, 8 Gat, Morisho, Zif, 9 Odorayim, Laxish, Ozikah, 10 Zorox, Oyjavlon va Xevron. Bu shaharlar Yahudo va Benyamin hududlaridagi mustahkam shaharlar boʻldi. 11 Raxabom qal'alarni mustahkamladi. U yerga qoʻmondonlar tayin qilib, oziq–ovqat, zaytun moyi va sharob gʻamladi. 12 Har bir shaharni qalqon va nayzalar bilan ta'minlab, mudofaani gʻoyat kuchaytirdi. Shu tariqa u Yahudo va Benyamin qabilalarini qoʻli ostida saqladi.

Ruhoniylar va levilar Yahudo yurtiga keladilar

13 Isroilning barcha hududlaridagi ruhoniylar va levilar Raxabomning tarafdorlari edilar. 14 Levilar hatto oʻz yaylovlarini va mulklarini tashlab, Yahudo va Quddusga kelgan edilar. Chunki Isroil shohi Yeribom va uning oʻgʻillari levilarga Egamizning ruhoniylari sifatida xizmat qilishga yoʻl qoʻymagan edilar. 15 Yeribom sajdagohlarda* xizmat qilish uchun oʻz ruhoniylarini tayinladi. Ular Yeribom yasattirgan oltin buzoqlarga va echki jinlarga* topinar edilar. 16 Isroilning hamma qabilalaridan Egamizga* chin yurakdan intilganlar esa levilar va ruhoniylarga ergashib, Quddusga

keldilar. Ular Quddusda ota–bobolarining Xudosi — Egamizga qurbonlik qilishardi.
17 Buning natijasida Yahudo shohligi mustahkam bo‘ldi. Ular Dovud bilan Sulaymonga
qanday xizmat qilgan bo‘lsalar, Raxabomga ham uch yil davomida sadoqat bilan xizmat
qildilar.

Raxabomning xonadoni

18 Raxabom Dovud o‘g‘li Yarimo‘tning qizi Maxalatga uylandi. Maxalatning onasi
Abuhayil, Essay o‘g‘li Eliyobning qizi edi. 19 Maxalat Raxabomga Yoush, Shamariyo va
Zaham degan o‘g‘illar tug‘ib berdi. 20 Keyinchalik Raxabom Absalomning qizi Maxoni*
o‘ziga xotin qilib oldi. Maxo unga Abiyo, Attay, Zizo va Shalumit degan o‘g‘illar tug‘ib
berdi. 21 Raxabom boshqa xotinlari va kanizaklariga* qaraganda, Absalomning qizi
Maxoni yaxshi ko‘rardi. Raxabomning o‘n sakkizta xotini va oltmishta kanizagi bo‘lib, u
yigirma sakkiz o‘g‘il va oltmish qiz ko‘rdi.
22 Raxabom xotini Maxo tuqqan o‘g‘li Abiyoni taxt vorisi qilish niyatida, hamma aka–
ukalari orasida bosh shahzoda qilib tayinladi. 23 Raxabom donolarcha ish tutib, qolgan
o‘g‘illariga mas’uliyatni taqsimlab berdi, ularni Yahudo va Benyamin hududidagi
mustahkam shaharlarga o‘rnashtirdi. Ularga hamma narsani mo‘l qilib yetkazdi, ularni
ko‘p xotinlarga uylantirdi.

12–BOB

Misr Yahudo yurtiga hujum qiladi

1 Raxabom o‘z hukmronligini mustahkamlab, kuchayib ketgach, u bilan birga butun
xalq Egamizning qonunlaridan yuz o‘girdi. 2 Ular Egamizga qilgan bevafoligi uchun
Raxabom hukmronligining beshinchi yilida* Misr shohi Shishax Quddusga bostirib keldi.
3 Shishax o‘zi bilan 1200 ta jang aravasini, 60.000 nafar otliq lashkarni, shuningdek,
Misrdan Liviyalik, Suxotlik va Habashistonlik* son–sanoqsiz qo‘shinni tortib keldi.
4 Shishax Yahudoning mustahkam shaharlarini qo‘lga kiritib, Quddusgacha yetib bordi.
5 Shunda Shamayo payg‘ambar shoh Raxabomning va Yahudo lashkarboshilarining
oldiga keldi. Ular o‘sha paytda Shishaxdan qochib, Quddusga to‘planishgan edi. Shamayo
payg‘ambar ularga dedi:
— Egamiz shunday demoqda: “Sizlar Meni tark etdingiz, shuning uchun Men ham
sizlarni tark etib, Shishaxning qo‘liga beraman.”
6 Shunda lashkarboshilar bilan shoh o‘z ayblarini tan olib: “Egamiz adolatlidir”,
dedilar. 7 Ular ayblarini tan olganlarini Egamiz ko‘rgach, Shamayoga shu so‘zlarini ayon
qildi: “Ular gunohlariga iqror bo‘ldilar, shuning uchun ularni qirib tashlamayman.
Shishax hujum qilganda, ularni qisman xalos etaman. Shishaxning qo‘li orqali Quddusga
g‘azabimni sochmayman. 8 Biroq ularni Shishaxga qaram qilib qo‘yaman, shunda ular
Menga xizmat qilish bilan boshqa yurtlarning shohlariga xizmat qilish orasidagi farqni
bilib oladilar.”
9 Misr shohi Shishax Quddusga bostirib kelganda, Egamizning uyidagi va saroydagi
xazinalarni tortib oldi, qo‘liga nima ilinsa, hammasini oldi. Sulaymon yasattirgan oltin
qalqonlarni ham oldi. 10 Shoh Raxabom oltin qalqonlar o‘rniga bronza qalqonlar
yasattirdi va ularni shoh saroyi darvozasini qo‘riqlaydigan soqchilar boshliqlari qo‘liga
berdi. 11 Shoh Egamizning uyiga kirganda, soqchilar qalqonlarni ko‘tarib borishar, keyin
esa qalqonlarni joyiga eltib qo‘yishardi. 12 Raxabom o‘z ayblarini tan olgani uchun

Egamiz g‘azabidan tushib, Yahudo xalqini tamomila qirib yubormadi. Yahudodagi ahvol yaxshilandi.

Raxabomning hukmronligi

13 Shoh Raxabom Quddusda hukmronlik qilib, kuchayib boraverdi. U taxtga o‘tirgan
paytda qirq bir yoshda edi. Uning onasi Ommonlik bo‘lib, ismi Namax edi. Raxabom
Quddusda o‘n yetti yil shohlik qildi. Egamiz hamma Isroil qabilalarining shaharlari
orasidan Quddus shahrini O‘ziga sajda qilishlari uchun tanlab olgan edi. 14 Raxabom chin
yurakdan Egamizga intilmagani uchun qabihlik qilaverdi.
15 Raxabom bilan Yeribom butun umri davomida urishib keldilar. Raxabomning
butun faoliyati boshdan oxirgacha Shamayo payg‘ambar va valiy Yiddo yozgan
nasabnomada bayon etilgan. 16 Nihoyat, Raxabom olamdan o‘tib, Dovud qal’asida, ota–
bobolari yoniga dafn qilindi. Uning o‘rniga o‘g‘li Abiyo shoh bo‘ldi.

13–BOB

Abiyo bilan Yeribom o‘rtasidagi urush

1 Isroil shohi Yeribom hukmronlik qilayotganiga o‘n sakkiz yil bo‘lganda, Abiyo
Yahudoga shoh bo‘ldi. 2 U Quddusda uch yil shohlik qildi. Onasining ismi Maxo* bo‘lib,
Givolik Uriyolning qizi edi.
Abiyo bilan Yeribom o‘rtasida urush bo‘ldi. 3 Abiyo saralangan odamlardan tashkil
topgan 400.000 nafar botir jangchisini urushga boshladi. Yeribom esa Abiyoga qarshi
800.000 nafar saralangan bahodir jangchini saf torttirdi. 4 Abiyo Efrayim qirlaridagi
Zamorayim tog‘i yon bag‘riga chiqib, gapirdi:

“Ey Yeribom va butun Isroil xalqi, gapimni eshiting! 5 Isroil xalqining Xudosi
— Egamiz shoh Dovud bilan qat’iy ahd tuzib, Isroil ustidan hukmronlik qilishni
to abad unga va uning nasliga topshirgan. Nahotki buni bilmasangiz?! 6 Shunday
bo‘lsa–da, Nabat o‘g‘li Yeribom Dovud o‘g‘li Sulaymonning xizmatida bo‘la turib,
o‘z xo‘jayiniga qarshi bosh ko‘tardi. 7 Atrofiga bir guruh allaqanday yaramas
odamlarni to‘plab, Sulaymon o‘g‘li Raxabomga qarshi fitna uyushtirdi. Raxabom
o‘sha paytda yosh, tajribasiz bo‘lgani uchun ularga qarshilik ko‘rsata olmadi.
8 Endi esa sizlar Dovud nasli qo‘lidagi Egamizning shohligiga qarshi urush
qilmoqchisizlar. Ha, sizlar ko‘pchiliksiz. Yeribom xudolar sifatida yasattirib
bergan oltin buzoqlar* ham yoningizda. 9 Sizlar Horunning naslidan bo‘lgan
Egamizning ruhoniylarini va levilarni quvib yubordingizlar. Begona xalqlardan
o‘rnak olib, oddiy odamlarni ruhoniy qilib tayinladingizlar. Qoyil–e! Yosh buqasi
yoki yettita qo‘chqori bo‘lgan har kim soxta xudolaringizga ruhoniylik qila oladi–
ya!
10 Lekin Xudoyimiz Egamizdir, biz Undan yuz o‘girmadik. Egamizga xizmat
qilayotgan ruhoniylarimiz Horun naslidandir. Levilar ularga xizmatda yordam
berishyapti. 11 Ular har kuni ertalab va kechqurun Egamizga kuydiriladigan
qurbonliklar atashadi, xushbo‘y tutatqilar tutatishadi, poklangan xontaxtaga
muqaddas nonlar qo‘yishadi, har oqshom oltin chiroqpoyadagi moychiroqlarni
yoqishadi. Ha, biz Egamiz Xudoning talablarini bajaramiz, sizlar esa Uni tark
etdingizlar. 12 Xudo biz bilan birgadir, U bizning yo‘lboshchimizdir. Uning

ruhoniylari karnaylar chalib, sizlarga qarshi jangga da’vat qiladi. Ey Isroil xalqi! Ota–bobolaringizning Xudosi — Egamizga qarshi jang qilmang, siz baribir muvaffaqiyatga erishmaysiz!”

13 Shu orada Yeribom bildirmay sipohlarining bir qismini Yahudo lashkarining orqa tomoniga pistirma qo‘yish uchun jo‘natdi. Sipohlarining asosiy qismi esa Yahudo lashkarining old tomonida saf tortgan edi. 14 Yahudo lashkari qarashsa, qurshovda qolishibdi. Ular Egamizdan yordam so‘rab yolvorishdi, ruhoniylar karnaylarini chalishdi. 15 Yahudo lashkari ovozi boricha hayqirishdi. Ularning jangovar hayqirig‘i ostida Xudo Yeribomni hamda butun Isroil lashkarini Abiyo va Yahudo xalqi oldida mag‘lub qildi. 16 Isroil lashkari Yahudo lashkari oldiga tushib qochishdi. Xudo Isroil lashkarini Yahudo lashkarining qo‘liga berdi. 17 Abiyo va uning lashkari ularga og‘ir talafot yetkazdilar. Isroil lashkarining 500.000 nafar saralangan sipohi qurbon bo‘ldi. 18 Yahudo lashkari ota–bobolarining Xudosi — Egamizga tayangani uchun jangda Isroil lashkarini mag‘lub qilib, g‘alabaga erishgan edi.

19 Abiyo Yeribomni ta’qib qilib, Baytil, Yashono va Efro‘n shaharlarini hamda o‘sha shaharlar atrofidagi qishloqlarni qo‘lga kiritdi. 20 Yeribom Abiyo davrida oldingi qudratini tiklay olmadi. Egamiz shoh Yeribomning jonini olib, uni halok qildi.

21 Abiyo esa kuchayib boraverdi. U o‘n to‘rtta xotinga uylanib, yigirma ikkita o‘g‘il va o‘n oltita qiz ko‘rdi.

22 Abiyoning boshqa ishlari, uning faoliyati va tutgan yo‘llari Yiddo payg‘ambarning tarixida bayon etilgan.

14–BOB

Shoh Oso Habashistonni mag‘lub qiladi

1 Abiyo olamdan o‘tdi. Uni Dovud qal’asida, ota–bobolari yoniga dafn qildilar, uning o‘rniga o‘g‘li Oso shoh bo‘ldi. Uning hukmronligi davrida yurtda o‘n yil tinchlik, osoyishtalik bo‘ldi. 2 Oso Egasi Xudoning oldida yaxshi va to‘g‘ri ishlar qildi. 3 U begona xudolarga atalgan qurbongohlarni va sajdagohlarni* yo‘q qildi, butsimon toshlarni parchalab tashladi, Asheraning* ustunlarini kesdi. 4 Oso Yahudo xalqiga: “Ota–bobolaringizning Xudosi — Egamizga yuz buring, Uning qonun va amrlariga rioya qiling”, deb farmon berdi. 5 U Yahudoning hamma shaharlaridan sajdagohlarni va tutatqi qurbongohlarini yo‘qotdi. Uning hukmronligi davrida shohlikda tinchlik, osoyishtalik bo‘ldi. 6 Yurtda tinchlik hukmron bo‘lgan paytda, Oso Yahudodagi shaharlarni mustahkamladi. Egamiz unga osoyishtalik ato qilgani uchun o‘sha yillari urush bo‘lmadi. 7 Oso Yahudo xalqiga aytdi: “Kelinglar, shaharlarni devorlar bilan o‘raylik, minoralar quraylik, tambalanadigan darvozalar o‘rnatib, shaharlarni mustahkamlaylik. Biz Egamiz Xudoga itoat qilganimiz uchun, bu yurt hali ham bizniki. Xudo bizga har tarafdan osoyishtalik ato qilgan.” Shunday qilib, ular qurilish qildilar, huzur–halovatga yetishdilar. 8 Osoning Yahudo qabilasidan 300.000 sipohi bo‘lib, ular qalqon va nayzalar bilan qurollangan edilar. Benyamin qabilasidan esa 280.000 sipohi bo‘lib, ular qalqon va yoylar bilan qurollangan edilar. Ularning hammasi bahodir jangchilar edi.

9 Habashistonlik* Zerax behisob lashkari va 300 jang aravasi bilan Yahudo yurtiga hujum qilib, Morisho shahrigacha* bostirib bordi. 10 Oso unga qarshi yo‘lga otlandi.

Ikkala tomon Morisho yaqinidagi Zafito vodiysida saf tortishdi. 11 Oso o‘zining Egasi Xudoga iltijo qildi: “Ey Egamiz! Yolg‘iz Sengina zaif odamga kuchli raqibini mag‘lub qilishga yordam bera olasan. Ey Egamiz Xudo! Bizga yordam ber! Biz Senga tayanamiz. Sening noming bilan bu behisob lashkarga qarshi jangga otlandik. Ey Egamiz! Sen bizning Xudoyimizsan. Inson zoti Seni mag‘lub qilishiga yo‘l qo‘yma!”

12 Oso va Yahudo lashkari hujumni boshlagach, Egamiz Habashistonliklarni mag‘lub qildi. Habashistonliklar qocha boshladilar. 13 Oso lashkari bilan ularni Garorgacha* quvib bordi. Habashistonliklarning birortasi ham qochib qutula olmadi. Ularning hammasi Egamizning va Uning lashkari oldida qirilib ketdi. Yahudo lashkari ko‘p miqdorda o‘lja olib qaytdi. 14 Garor atrofidagi shaharlarda yashaydigan xalq yuz bergan voqeani eshitib, Egamizdan qo‘rqib qolgan edi. Shu sababdan Yahudo lashkari o‘sha shaharlarning hammasini mag‘lub qilib, talon–taroj qildi, u yerdan mo‘l o‘lja olib ketdi. 15 Ular cho‘ponlarning chodirlariga ham hujum qilib, ko‘p miqdorda qo‘y, echki, tuyalarni oldilar. So‘ngra Quddusga qaytib ketdilar.

15–BOB

Shoh Osoning islohotlari

1 Odod o‘g‘li Ozariyoni Xudoning Ruhi qamrab oldi. 2 Ozariyo Osoning huzuriga borib dedi:

— Ey shoh Oso! Ey Yahudo va Benyamin xalqi! Gapimga quloq solinglar. Sizlar Egamiz bilan bo‘lar ekansiz, U ham sizlar bilan birga bo‘ladi. Agar sizlar Egamizni izlasangizlar, Uni topasizlar. Agar Uni tark etsangizlar, U ham sizlarni tark etadi. 3 Isroil xalqi uzoq vaqt davomida* haqiqiy Xudosiz yashadi. Ularga ta’lim beradigan ruhoniy yo‘q edi, ular qonundan mahrum edilar. 4 Lekin boshlariga og‘ir kulfat tushganda, ular Isroil xalqining Xudosiga — Egamizga yuz burdilar, Uni izladilar, shunda topdilar. 5 O‘sha notinch davrda yo‘lga chiqish xatarli edi, chunki hamma joyda tartibsizlik va behalovatlik hukmron edi. 6 Bir xalq ikkinchisini yakson qilardi, bir shahar boshqasini vayron etar edi, chunki Xudo ularni iztirobga solib, behalovat qilib qo‘ygan edi. 7 Lekin sizlar dadil bo‘linglar! Tushkunlikka tushmanglar! Sizlar qilgan ishlaringiz uchun mukofot olasizlar.

8 Shoh Oso Odod o‘g‘li Ozariyo payg‘ambarning aytgan bashoratini eshitgach*, dadillashdi. U Yahudo va Benyamin yerlaridan, shuningdek, Efrayim qirlarida qo‘lga kiritgan shaharlardan makruh butlarni yo‘q qildi. Ma’bad hovlisidagi Egamizning qurbongohini tuzatdi. 9 U Yahudo va Benyamin xalqini, shuningdek, oralarida istiqomat qilayotgan Efrayim, Manashe va Shimo‘n qabilasidan bo‘lgan musofirlarni to‘pladi. Ularning ko‘pchiligi Oso hukmronligi davrida Yahudoga ko‘chib kelgan edilar, chunki Egasi Xudo Oso bilan birga bo‘lganini ko‘rgan edilar. 10 Ular Oso hukmronligining o‘n beshinchi yili uchinchi oyida* Quddusda to‘plandilar. 11 O‘sha kuni o‘zlari olib kelgan o‘ljalardan 700 ta buqa va 7000 ta qo‘yni Egamizga qurbonlik qildilar. 12 So‘ng ota–bobolarining Xudosiga — Egamizga butun qalbi bilan, jonu dili bilan intilishga ahd qildilar. 13 Kimki Isroil xalqining Xudosiga — Egamizga intilmasa, xoh yosh bo‘lsin, xoh qari, xoh erkak bo‘lsin, xoh ayol, o‘ldiriladigan bo‘ldi. 14 Ular baland ovozda Egamizga qasamyod qildilar, hayqirdilar, karnay va burg‘ular chaldilar. 15 Jamiki Yahudo xalqi chin dildan qasamyod qilgani uchun xursand bo‘ldi. Ular Egamizni astoydil izlaganlari uchun

Uni topdilar. Egamiz ularga har tarafdan osoyishtalik ato qildi.
16 Shoh Osoning buvisi* Maxo Asheraning* makruh tasvirini yasattirgan edi, shuning
uchun Oso buvisini malikalik martabasidan* mahrum qildi. U buvisi yasattirgan butni
qo‘porib tashlab, parcha–parcha qilgandan keyin, Qidron soyligida* yoqib yubordi.
17 Oso Isroildagi sajdagohlarni* yo‘q qilmagan bo‘lsa ham, umr bo‘yi Egamizga sodiq
qoldi. 18 Otasi va o‘zi Xudoga atab nazr etgan oltinu kumushlarni, idishlarni Xudoning
uyiga olib keldi. 19 Oso hukmronligining o‘ttiz beshinchi yiliga qadar urush bo‘lmadi.

16–BOB

Isroil shohi Basho Yahudoga hujum qiladi

1 Oso hukmronligining o‘ttiz oltinchi yilida Isroil shohi Basho Yahudoga hujum qildi.
Odamlar Yahudo yurtiga osonlikcha kirib chiqa olmasligi uchun, Basho Rama shahrini*
mustahkamladi. 2 Oso Egamizning uyidagi va saroydagi xazinalardan kumush va
oltinlarni olib, Damashqda o‘tirgan Oram shohi Banhadadga jo‘natdi. Oso unga shu
xabarni ham yubordi: 3 “Sening otang bilan mening otam o‘rtasida ittifoq bo‘lgani kabi,
sen bilan mening o‘rtamda ham ittifoq bo‘lsin. Senga kumush va oltin berib
yuboryapman. Isroil shohi Basho bilan ittifoq tuzgan eding, endi o‘shani bekor qil, toki u
yurtimdan jo‘nab qolsin.”
4 Banhadad shoh Osoning taklifini qabul qildi, lashkarboshilariga: “Isroil
shaharlariga hujum qilinglar”, deb ularni o‘sha yoqqa yubordi. Ular Iyxon, Dan, Ovil–
Bayt–Maxo* shaharlarini va Naftali hududidagi barcha ombor shaharlarni bosib oldilar.
5 Basho bu voqeani eshitgach, Ramani mustahkamlash fikridan voz kechib, ishni
to‘xtatib qo‘ydi. 6 Shoh Oso jamiki Yahudo xalqini chaqirtirib, ularga Rama shahrini
mustahkamlashda Basho ishlatgan tosh va yog‘ochlarni tashittirdi. Oso o‘sha tosh va
yog‘ochlar bilan Gebo hamda Mispax shaharlarini mustahkamladi.
7 Shu vaqtda valiy Xonin Yahudo shohi Osoning huzuriga kelib, unga aytdi:
— Sen Egang Xudoga suyanmasdan, Oram shohiga suyanding. Shuning uchun Oram
shohining lashkarini qo‘ldan boy berding. 8 Nahotki Habashistonliklar* bilan Liviyaliklar
esingda bo‘lmasa?! Ular son–sanoqsiz lashkarlari, ko‘plab jang aravalari va otliq
sipohlari bilan kelgan edi–ku. O‘shanda Sen Egamizga suyanganing uchun, Egamiz ularni
sening qo‘lingga bergan edi. 9 Egamiz yer yuzidagi hammani kuzatib turadi, Unga sodiq
bo‘lganlarga U kuch–qudrat beradi. Sen aqlsizlarcha ish tutding. Bundan buyon sening
boshing urushdan chiqmaydi.
10 Oso valiyning bu gaplaridan g‘azablandi. U g‘azab ustida valiyni zindonga tashladi.
Xalqdan ba’zilarini ham shafqatsizlarcha eza boshladi.

Oso hukmronligining oxirgi davri

11 Osoning butun faoliyati boshidan oxirigacha “Yahudo va Isroil shohlari kitobi”da
yozib qoldirilgan. 12 Hukmronligining o‘ttiz to‘qqizinchi yilida Osoning oyoqlari
og‘riydigan bo‘lib qoldi. Uning ahvoli juda og‘ir bo‘lishiga qaramay, u kasallik paytida
ham Egamizga yuzini burmadi, faqat tabiblardan yordam so‘radi. 13 Nihoyat, Oso qirq bir
yil hukmronlik qilib, olamdan o‘tdi. 14 Uni attorlar tayyorlagan turli–tuman ziravorlar
bilan to‘la tobutga yotqizdilar. U Dovudning qal’asida, o‘zi uchun qoyada o‘ydirgan
qabrga dafn qilindi. Uning sharafiga katta gulxan yoqdilar.

17–BOB

Yahudo shohi Yohushafat

1 Yohushafat otasi Oso o‘rniga shoh bo‘ldi, u Isroildan o‘zini himoya qilish uchun
mudofaani kuchaytirdi. 2 U Yahudodagi hamma mustahkam shaharlarga harbiy
qismlarni joylashtirdi. Yahudo yerlarida hamda otasi Oso qo‘lga kiritgan Efrayim
shaharlarida ko‘plab qo‘nolg‘alar o‘rnashtirdi. 3 Yohushafat otasi Osodan* o‘rnak olib,
uning ilk hukmronligi yillariga taqlid qilgani uchun Egamiz u bilan birga bo‘ldi.
Yohushafat Baalga sig‘inmay, 4 otasining Xudosiga intildi, Isroil shohlari yo‘llaridan
yurmasdan, Xudoning amrlariga itoat etdi. 5 Shuning uchun Egamiz uning hokimiyatini
mustahkam qildi. Butun Yahudo xalqi Yohushafatga o‘lpon to‘lardi, u katta boylik va
shuhrat topdi. 6 Egamizga itoat qilishdan u zavq olar edi. Shu bois, u Yahudodagi
sajdagohlarni* yo‘qotdi, Asheraga* atalgan ustunlarni chopib tashladi.

7 Hukmronligining uchinchi yilida xalqqa ta’lim berish uchun o‘z a’yonlari
Banxayilni, Obodiyoni, Zakariyoni, Natanilni va Mixiyoni Yahudo shaharlariga jo‘natdi.
8 Levilardan Shamayo, Nataniyo, Zabadiyo, Osoyil, Shamiromo‘t, Yo‘natan, Odoniyo,
To‘viyoxu va To‘doniyo hamda ruhoniylar Elishama va Yohuram ularga hamroh
bo‘ldilar. 9 Ular Egamizning Tavrot kitobini olib, Yahudoning hamma shaharlariga
borishdi va xalqqa ta’lim berishdi.

10 Yahudo atroflaridagi xalqlarga Egamiz qo‘rquv soldi, shuning uchun o‘sha xalqlar
Yohushafatga qarshi urush qilmadilar. 11 Ba’zi Filistlar Yohushafatga katta miqdorda
kumushni o‘lpon qilib olib keldilar. Arablar ham 7700 ta qo‘chqor va 7700 ta taka olib
keldilar. 12 Yohushafat tobora kuchayib boraverdi. U Yahudoda qal’alar va ombor
shaharlar qurdirdi. 13 U yerga ko‘p miqdorda oziq–ovqat to‘pladi. Quddusga tajribali
bahodir jangchilarni joylashtirdi. 14 Bu jangchilar xonadonlari bo‘yicha safarbar qilingan
edilar:

Yahudo qabilasining sipohlariga lashkarboshi Adnah edi. Uning qo‘li ostida
300.000 nafar bahodir jangchi bo‘lib, ular 1000 nafar jangchidan tashkil topgan
bo‘linmalarga bo‘lingan edilar.
15 Ikkinchi lashkarboshi Yohuxanon edi, uning qo‘li ostida 280.000 nafar
sipohi bor edi.
16 Uchinchi lashkarboshi Zixri o‘g‘li Amasiyo edi, uning qo‘li ostida 200.000
nafar sipohi bor edi. Amasiyo o‘z xohishi bilan Egamizga xizmat qilayotgan edi.

17 Benyamin qabilasining sipohlariga lashkarboshi Elyodax edi. U bahodir
jangchi bo‘lib, qo‘li ostida yoy va qalqon bilan qurollangan 200.000 nafar sipohi
bor edi.
18 Elyodaxning o‘ng qo‘l yordamchisi Yohuzabad edi, uning qo‘li ostida
qurollangan 180.000 nafar sipohi bor edi.

19 Bu jangchilar shohga Quddusda xizmat qilar edilar. Bulardan tashqari, shoh
mustahkam shaharlarga boshqa harbiy qismlarni joylashtirgan edi.

18–BOB

Mixiyo payg‘ambar shoh Axabni ogohlantiradi

1 Yohushafat nihoyatda boy bo‘lib, obro‘si oshib ketdi. U o‘g‘liga Isroil shohi
Axabning qizini olib berib, Axab bilan aloqasini mustahkamladi. 2 Oradan bir necha yil
o‘tgach, Yohushafat Axabni ko‘rgani Samariya shahriga bordi. Axab Yohushafat va uning
hamrohlari sharafiga ko‘plab mol–qo‘y so‘ydi. U Yohushafatni Giladdagi* Ramo‘t
shahriga hujum qilishga ko‘ndirmoqchi bo‘lib*:
3 — Giladdagi Ramo‘t uchun jang qilmoqqa men bilan borasanmi? — deb so‘radi.
— Meni go‘yo o‘zing deb bil, xalqimni o‘zingning xalqing deb bil. Biz sen bilan birga
urushga boramiz, — dedi unga Yahudo shohi Yohushafat. 4 Yohushafat Isroil shohiga
yana aytdi:
— Avval Egamizning xohish–irodasini bil–chi, U nima der ekan.
5 Isroil shohi to‘rt yuz payg‘ambarni to‘plab ulardan so‘radi:
— Giladdagi Ramo‘t uchun jang qilmoqqa boraymi yoki bormaymi?
— Boraversinlar, Xudo u shaharni shoh hazratlarining qo‘liga beradi.
6 — Bu yerda ulardan boshqa Egamizning birorta payg‘ambari qolmadimi? Agar
bo‘lsa, undan ham so‘rab ko‘raylik, — dedi Yohushafat.
7 — Yana bir kishi bor, — dedi Axab Yohushafatga, — Yimloning o‘g‘li Mixiyo. U
orqali Egamizning xohish–irodasini bilsak bo‘ladi. Lekin men uni yomon ko‘raman,
chunki u men haqimda bashorat qilsa, xayrli gap aytmaydi, har doim xunuk gap aytadi.
— Ey shoh, bunday deb aytma, — dedi Yohushafat.
8 Isroil shohi mulozimini chaqirib:
— Tez borib, Yimloning o‘g‘li Mixiyoni olib kel, — deb buyurdi.
9 Isroil shohi Axab va Yahudo shohi Yohushafat shohlik liboslarini kiyib, har qaysisi
o‘z taxtida Samariya darvozasi yonida o‘tirar, hamma payg‘ambarlar esa ularning
ro‘parasida turib bashorat qilayotgan edi. 10 Xanano o‘g‘li Zidqiyo temir shoxlar yasab,
dedi:
— Egamiz: “Oram lashkarini qirib bitirmaguningcha, ularni shu shoxlar bilan
suzaverasan”, deb aytmoqda.
11 Boshqa payg‘ambarlar ham shohga:
— Ramo‘tga boraversinlar, albatta g‘alaba qiladilar, Egamiz o‘sha shaharni
shohimizning qo‘llariga beradi, — deb bashorat qildilar.
12 Mulozim Mixiyoni chaqirish uchun ketdi. U Mixiyoning oldiga borib, unga dedi:
— Qara, hozir hamma payg‘ambarlar bir og‘izdan shohga yaxshilikdan bashorat
qilyaptilar. Sening bashorating ham ularnikiday bo‘lsin. Sen ham yaxshilikdan karomat
qil.
13 — Xudo haqi! Xudoyim menga nimani ayon qilsa, shuni aytaman, — dedi Mixiyo.
14 Mixiyo shoh huzuriga keldi.
— Ey Mixiyo, men Giladdagi Ramo‘t shahrini qaytarib olish uchun jang
qilmoqchiman. Ramo‘tga hujum qilaymi yoki yo‘qmi? — deb so‘radi shoh undan.
— Hujum qilaversinlar, albatta g‘olib keladilar, — dedi Mixiyo. — O‘sha shahar shoh
hazratlarining qo‘liga beriladi.
15 — Faqat haqiqatni aytishing uchun Egamiz nomini o‘rtaga qo‘yib, senga necha
marta ont ichdirayin? — deb shoh undan yana so‘radi.

16 Mixiyo unga shunday javob berdi:
— Isroil xalqini koʻrib turibman, ular togʻlar ustida yoyilib yurgan choʻponsiz
qoʻylarga oʻxshaydi. Egamiz menga dedi: “Ularning xoʻjayini yoʻq, har biri oʻz uyiga
tinch–omon qaytib ketsin.”
17 — U men haqimda bashorat qilganda xayrli gap aytmaydi, balki xunuk xabar
aytadi, deb senga aytmaganmidim?! — deb xafaligini izhor qildi Axab Yohushafatga.
18 — Unday boʻlsa, Egamizning soʻzlarini eshitsinlar, — dedi Mixiyo Axabga. — Men
Egamizni Oʻzining taxtida oʻtirgan holatda koʻrdim. Jamiki samoviy mavjudotlar Uning
oʻng va chap tomonidan joy olgan edi. 19 Egamiz ulardan soʻradi: “Isroil shohi Axab
Giladdagi Ramoʻt shahriga borib, oʻsha yerda halok boʻlsin deya, kim uni oʻziga ogʻdira
oladi?” Biri unday dedi, boshqasi bunday dedi. 20 Bir payt ruhlardan bittasi Egamizning
roʻparasida paydo boʻldi va: “Uni men koʻndiraman”, dedi. “Qanday qilib koʻndirasan?”
soʻradi Egamiz. 21 “Men chiqib, hamma paygʻambarlarning ogʻzida yolgʻonchi ruhga
aylanaman”, dedi u. “Sen uni koʻndir, bor, aytganingday qil, sen uddasidan chiqasan”,
dedi Egamiz. 22 Mana koʻrdingizmi, Egamiz paygʻambarlaringizning ogʻziga yolgʻonchi
ruh solib qoʻygan. U boshingizga falokat keltirishga qaror qilgan.
23 Shu payt Xanano oʻgʻli Zidqiyo Mixiyoning oldiga kelib, uning yuziga bir shapaloq
urdi:
— Nahotki Egamizning Ruhi meni tark etib, sen bilan gaplashgani ketgan boʻlsa?!
Ayt–chi, u qaysi yoʻldan ketdi? — soʻradi Zidqiyo.
24 — Qarab tur, sichqonning ini ming tanga boʻlib, yashiringani ichkari xonaga
yugurganingda koʻrasan, — dedi Mixiyo Zidqiyoga.
25 — Mixiyoni ushlanglar! — buyurdi Isroil shohi. — Uni shahar hokimi Omonning va
shahzoda Yoʻshning huzuriga olib boringlar. 26 Ularga mening amrimni yetkazinglar.
Ular Mixiyoni zindonga tashlashsin. Men sogʻ–salomat qaytib kelgunimcha, oz–moz
non–suv berib tursin, xolos.
27 — Ey xaloyiq! Hammangiz eshitib qoʻying! Agar shoh hazratlari sogʻ–salomat
qaytib kelsalar, Egamiz men orqali gapirmagan boʻladi, — dedi Mixiyo.

Axab halok boʻladi

28 Isroil shohi Axab bilan Yahudo shohi Yohushafat Giladdagi Ramoʻt shahriga
ketishdi.
29 — Men qiyofamni oʻzgartirib, jangga kiraman, sen esa shohlik liboslaringni kiyib
ol, — dedi Axab Yohushafatga.
Axab qiyofasini oʻzgartirib, jangga kirdi. 30 Oram shohi jang aravalari qoʻmondoniga:
“Kattasi bilan ham, kichigi bilan ham jang qilib oʻtirmanglar, asosiy hujumni Isroil
shohining oʻziga qaratinglar”, deb amr bergan edi. 31 Jang aravalari qoʻmondonlari
Yohushafatni koʻrgach: “Isroil shohi ana shu!” deb oʻylab unga hujum boshladilar.
Yohushafat lashkarini jangga da’vat qilib baqirganda, Egamiz unga yordam berib,
hujumni qaytardi. 32 Aravalarning qoʻmondonlari bildilarki, u Isroil shohi emas ekan.
Qoʻmondonlar orqaga qaytdilar.
33 Bir odam bexosdan yoyini tortib qoʻyib yuborgan edi, oʻq toʻppa–toʻgʻri Isroil
shohiga kelib tegdi. Shohning ustidagi sovuti ulangan joydan oʻq kirib ketgan ekan. Shoh
ogʻir jarohatlandi.
— Otni orqaga bur, men jarohatlandim, lashkar orasidan meni olib chiqib ket! —

dedi shoh izvoshchisiga. 34 O‘sha kuni g‘oyatda shiddatli jang bo‘ldi. Shoh Axab esa aravasi ustida suyanib, Oram lashkarini kuzatib turdi. Kechga tomon borib shoh qazo qildi.

19–BOB

Valiy Yohu Yohushafatga tanbeh beradi

1 Yahudo shohi Yohushafat Quddusdagi saroyiga sog‘–salomat qaytib keldi. 2 Xonin o‘g‘li valiy Yohu shoh Yohushafat bilan uchrashgani borib, unga dedi:

— Qabihlarga yordam berib, Egamizdan nafratlanganlarni yaxshi ko‘rish to‘g‘rimi? Qilgan bu ishing uchun Egamiz sendan g‘azablandi. 3 Shunga qaramay, sen yaxshi ishlar ham qilgansan. Sen Asheraning* ustunlarini Yahudo yurtidan yo‘q qilgansan, butun yuraging bilan Xudoga intilishga qat’iy qaror etgansan.

Shoh Yohushafatning islohotlari

4 Yohushafat Quddusda yashar edi. Biroq u tez–tez xalq orasiga chiqib, janubdagi Bershebadan tortib, to shimoldagi Efrayim qirlarigacha borar edi. Butun xalqni ota–bobolarining Xudosiga — Egamizga yuz burishga da’vat etardi. 5 U Yahudodagi mustahkam shaharlarning har biriga hakamlar tayinlab, 6 ularga shunday ko‘rsatma berdi:

— Hukm qilishda ehtiyot bo‘linglar, chunki sizlar inson nomidan emas, balki Egamiz nomidan hukm qilasiz. Hukm qilayotganingizda U sizlar bilan birga bo‘ladi. 7 Egamizdan qo‘rqing. Hukm chiqarganingizda ehtiyot bo‘ling, chunki Egamiz Xudo nohaqlikka, tarafkashligu poraga toqat qilmaydi.

8 Egamizning qonuni bilan bog‘liq bo‘lgan hukmlarni chiqarish va odamlar orasidagi munozaralarni yechish uchun Yohushafat Quddusda ba’zi levilarni, ruhoniylarni va Isroil urug‘boshilarini tayinladi. Ular Quddusda yashardilar. 9 Yohushafat ularga shunday deb uqtirdi:

— O‘z vazifangizni Egamizdan qo‘rqqan holda, sidqidildan, odilona bajaring. 10 Boshqa shaharda istiqomat qiladigan birodarlaringiz oldingizga qotillik yoki qonun, amr, farmon, qoidalar bilan bog‘liq bo‘lgan da’volar bilan kelsa, ularni ogohlantiring, toki ular Egamizga qarshi gunoh qilib qo‘ymasinlar, o‘zlarining va sizning boshingizga Egamizning qahrini keltirmasinlar. Shunday qilsangiz, aybdan xoli bo‘lasizlar. 11 Sizlar Egamizning ishlari yuzasidan hamma hisobotni oliy ruhoniy Emoriyoga, shohning ishlari yuzasidan bo‘lgan hisobotni esa Yahudo qabilasining boshlig‘i Ismoil o‘g‘li Zabadiyoga berasizlar. Sud qarorlari amalga oshishini levilar nazorat qilib turadilar. Dadil bo‘linglar, to‘g‘ri ish qilganga Xudo yor bo‘lsin!

20–BOB

Edomga qarshi urush

1 Oradan bir oz vaqt o‘tgach, Mo‘abliklar bilan Ommonliklar hamda Mavun xalqining* bir qismi Yohushafatga qarshi urishgani otlandilar. 2 Xabarchilar kelib, Yohushafatga: “Son–sanoqsiz lashkar Edomdan* — O‘lik dengizning narigi qirg‘og‘idan sizga qarshi kelmoqda. Ular Xazazon–Tamarni qo‘lga kiritib bo‘lishgan”, deb aytdilar. (Xazazon–Tamarning boshqa nomi En–Gedi* edi.) 3 Yohushafat qo‘rqib ketdi. U Egamizning

xohish–irodasini bilmoqchi bo‘lib, butun Yahudo bo‘ylab ro‘za e’lon qildi. 4 Yahudoning hamma shaharlaridan xalq Quddusga yig‘ilib, Egamizdan madad tiladi.

Shoh Yohushafatning ibodati va g‘alabasi

5 Yohushafat Yahudo va Quddus jamoasi qarshisida — Egamizning uyi oldidagi yangi hovlida turib, 6 iltijo qildi:

“Ey ota–bobolarimizning Xudosi — Egamiz! Samodagi yagona Xudo Sensan. Sen yer yuzidagi barcha xalqlarga hukmronlik qilasan. Kuch–qudrat egasi O‘zingsan. Kim Senga bas kela oladi?! 7 Ey Xudoyimiz! Xalqing Isroil bu yurtga kelganda, Sen ularning oldidan mahalliy xalqni haydab yubording, bu yurtni do‘sting Ibrohimning nasliga to abad berding. 8 Ota–bobolarimiz bu yerda yashab, Senga atab bir Ma’bad barpo qildilar. Ular shunday degan edilar:
9 «Boshimizga urush, o‘lat va ocharchilik kabi kulfatlar tushganda, biz shu uying oldiga — Sening huzuringga kelamiz. Zero, Sen shu yerdasan. Kulfat ichra Senga yolvoramiz, shunda Sen iltijolarimizni eshitib, bizga najot berasan.»
10 Mana qara, Ommon, Mo‘ab va Edom yurtining* xalqlari bizga hujum qilyaptilar. Bizning ota–bobolarimiz Misrdan chiqqanlarida, Sen ularga bu yurtlarga kirishga ijozat bermagan eding. Ular o‘sha yurtlarni aylanib o‘tib ketgan va u xalqlarni qirib yubormagan edilar. 11 Endi esa bu xalqlarning bizga qaytargan mukofotini ko‘rib qo‘y! Sen bizga mulk qilib bergan yurtdan ular bizni haydab yubormoqchilar. 12 Ey Xudoyimiz! Sen O‘zing ularni jazola, chunki bizga hujum qilgan bu ulkan lashkarga biz qarshilik qilishga ojizmiz. Nima qilishni biz bilmaymiz, Sendan keladigan yordamga ko‘z tutib turibmiz.”

13 Shu paytda jamiki Yahudo erkaklari xotin, bola–chaqalari bilan Egamizning oldida — Ma’badda turgan edilar. 14 Shu on Egamizning Ruhi jamoa orasida turgan levi Zakariyo o‘g‘li Yaxaziyolni qamrab oldi. Yaxaziyol Osif urug‘idan bo‘lib, Binayoning nevarasi, Yaviyolning evarasi va Mattaniyoning chevarasi edi. 15 Yaxaziyol dedi:

— Eshitinglar, ey Yohushafat hazratlari, butun Yahudo va Quddus ahli! Egamiz sizlarga shunday demoqda: bu son–sanoqsiz lashkardan qo‘rqmanglar, vahimaga tushmanglar! Bu jang sizniki emas, Xudonikidir. 16 Ertaga ularga hujum qilinglar. Ular Ziz dovonidan oshib keladilar. Sizlar ularni Yarubol adirlarining* etagidagi soylik boshida topasizlar. 17 Bu urushda sizlar jang qilmaysizlar. Sizlar joyingizni egallab, kutinglar. Egamiz sizlarni g‘alabaga erishtirganini ko‘rasizlar. Ey Yahudo va Quddus ahli! Qo‘rqmanglar, vahimaga tushmanglar. Ertaga ularga hujum qilinglar, Egamiz sizlar bilan birga bo‘ladi.

18 Shundan keyin Yohushafat yer o‘pib ta’zim qildi. Butun Yahudo va Quddus ahli ham ta’zim qilib, Egamizga sajda qildi. 19 Qohot va Ko‘rax nasllaridan bo‘lgan levilar tik turib, Isroil xalqining Xudosi — Egamizga baland ovoz bilan hamdu sano o‘qidilar.

20 Yahudo lashkari tong saharda turib, Taxuva adirlariga yo‘l oldi. Ular yo‘lga chiqqanlarida, Yohushafat turib dedi:

— Eshiting, ey Yahudo va Quddus ahli! Egangiz Xudoga ishoning, shunda bexatar bo‘lasiz! Egamizning payg‘ambarlari aytgan gaplariga ishoning, shunda muvaffaqiyatga erishasiz!

21 Yohushafat xalq bilan maslahatlashib bo‘lgandan keyin, Egamizni tarannum

etadigan, muqaddasligining go‘zalligiga hamdu sano o‘qiydigan qo‘shiqchilarni tayinladi. Ular lashkar oldida: “Egamizga shukronalar ayting, Uning sodiq sevgisi abadiydir”, deb qo‘shiq aytishlari kerak edi.

22 Ular qo‘shiq va hamdu sano aytishni boshlashlari bilanoq, Yahudoga qarshi kelgan Ommon, Mo‘ab va Edom xalqlariga Egamiz g‘oyibdan hujum qildi, ularni tor–mor etdi.
23 Ommon va Mo‘ab xalqlari Edom xalqiga hujum qilib, ularni bitta qoldirmay qirib tashlashdi. Ularni yo‘q qilganlaridan keyin esa bir–birlarini qirishdi.

24 Yahudo xalqi adirlarning butun manzarasini ko‘rsa bo‘ladigan balandlikka yetib kelganlarida, g‘animlar tomonga qarab, faqat yerda cho‘zilib yotgan murdalarni ko‘rdilar. Birontasi ham qochib qutulmagan edi. 25 Yohushafat o‘lja olish uchun lashkarini boshlab borganda, ular ko‘p miqdorda yuk hayvonlarini, mol–holni*, kiyim–kechaklarni* va qimmatbaho buyumlarni topdilar. Ko‘tara olgunlaricha narsa olib ketdilar. O‘ljaning ko‘pligidan, ular uch kun narsa tashidilar. 26 To‘rtinchi kuni ular Baraka vodiysida yig‘ilishib, Egamizga hamdu sano aytdilar. Shu sababdan bu vodiyning nomi bugungi kunda ham Baraka* vodiysi deb yuritiladi. 27 Keyin butun Yahudo va Quddus xalqi Yohushafat boshchiligida xursandchilik bilan Quddusga qaytdilar, chunki Egamiz ularga dushmanlari ustidan tantana qilishga imkon bergan edi. 28 Ular arfa, lira va karnay chalib, Quddusga — Egamizning uyiga keldilar. 29 Egamiz xalqi Isroilning dushmanlarini mag‘lub qilganini eshitgan barcha xalqlar Xudodan qo‘rqib qolishdi.
30 Yohushafatning shohligi tinchlikdan bahra topdi, Xudo ularga har tarafdan osoyishtalik ato qildi.

Yohushafat hukmronligining so‘nggi davri

31 Shunday qilib, Yohushafat Yahudoda hukmronlik qildi. U taxtga o‘tirgan paytda o‘ttiz besh yoshda bo‘lib, Quddusda yigirma besh yil shohlik qildi. Onasi Oziba Shilxining qizi edi. 32 Yohushafat otasi Osoning yo‘lidan yurdi, yo‘ldan ozmay, Egamiz oldida to‘g‘ri ishlar qildi. 33 Ammo sajdagohlarni* yo‘q qilib tashlamadi. Xalq hanuz ota–bobolarining Xudosiga chin yurakdan bog‘lanmagan edi.

34 Yohushafatning boshqa ishlari boshdan oxirigacha Xonin o‘g‘li Yohuning qo‘lyozmalarida bayon etilgan bo‘lib, “Isroil shohlari kitobi” tarkibiga kiritilgan.

35 Keyinchalik Yahudo shohi Yohushafat Isroil shohi Oxoziyo bilan ittifoq tuzdi. Oxoziyo ko‘p qabih ishlar qilgan edi. 36 Ular birgalikda Ezyo‘n–Geberda dengiz savdo kemalarini* yasadilar. 37 Shunda Morisholik Do‘davahu o‘g‘li Eliazar Yohushafatga qarshi bashorat qilib: “Sen Oxoziyo bilan ittifoq tuzganing uchun, Egamiz bu kemalaringni buzib tashlaydi”, deb ogohlantirdi. Kemalar parchalanib, ular dengizga* chiqishga muvaffaq bo‘la olmadilar.

21–BOB

1 Yohushafat olamdan o‘tdi. U ham Dovud qal’asida, ota–bobolari yoniga dafn qilindi. Uning o‘rniga o‘g‘li Yohuram shoh bo‘ldi.

Yahudo shohi Yohuram

2 Yohuramning Ozariyo, Yoxiyol, Zakariyo, Ozariyohu, Mikoyil va Shafatiyo degan ukalari bor edi. Bularning hammasi shoh Yohushafatning o‘g‘illari edi. 3 Otasi ularga ko‘p miqdorda oltinu kumush va qimmatbaho ashyolar bilan birga Yahudo yurtidagi mustahkam shaharlarni hadya etgan edi. Yohuramni esa, to‘ng‘ich o‘g‘il bo‘lgani uchun

taxt vorisi qilgan edi. 4 Yohuram otasi o‘rniga taxtga o‘tirib, o‘zini mustahkamlab
olgandan keyin, ukalarining hammasini va Isroil a’yonlaridan ba’zilarini qilichdan
o‘tkazdi.
5 Yohuram Yahudo shohi bo‘lganda, o‘ttiz ikki yoshda edi. U Quddusda sakkiz yil
hukmronlik qildi. 6 Xotini Axabning qizi bo‘lgani uchun Yohuram ham, Axab xonadoni
singari, Isroil shohlari yo‘lidan yurib, Egamiz oldida qabihliklar qildi. 7 Shunday bo‘lsa–
da, Dovudning xonadonini Egamiz halokatga uchratishni istamadi, chunki U Dovud bilan
ahd qilib: “Sening naslingga to abad so‘nmaydigan chiroq beraman”, deb va’da qilgan
edi*.

Edomliklarning isyoni

8 Yohuram davrida Edom Yahudo shohligiga qarshi isyon qildi. Edom xalqi
o‘zlarining mustaqil shohligini qurdilar. 9 Yohuram hamma lashkarboshilari va jang
aravalarini Edomga boshlab bordi. Edom lashkari Yohuramni va uning jang aravalari
sardorlarini o‘rab oldi, lekin Yohuram tunda hujum qilib, qamalni yorib chiqdi. 10 O‘sha
paytdan beri hozirgacha* Edom xalqi Yahudo hukmronligidan ozoddir. Yohuram ota–
bobolarining Xudosi — Egamizni tark etgani uchun Libna shahri* ham o‘sha davrda
isyon ko‘targan edi. 11 Yohuram Yahudo qirlarida sajdagohlar* barpo qildi, u Yahudo va
Quddus aholisini Xudoga bevafolik qilishga boshladi, ularni haq yo‘ldan ozdirdi.
12 O‘sha paytda Ilyos payg‘ambar unga quyidagicha maktub yubordi:

> “Bobong Dovudning Xudosi — Egamiz shunday demoqda: sen otang
> Yohushafatning yo‘lidan yurmading, Yahudo shohi Osoning izidan ham
> bormading, 13 balki Isroil shohlarining yo‘lidan yurding. Axab xonadoni Isroilni
> Menga bevafolik qilishga boshlaganday, sen ham Yahudo va Quddus aholisini
> Menga bevafolik qilishga boshlading. Sen hatto o‘z ukalaringni o‘ldirding, ular
> sendan yaxshiroq edi. 14 Shu sababdan Men, Egangiz, sening xalqing, bolalaring,
> xotinlaring boshiga va butun mol–mulkingga og‘ir kulfat keltiraman. 15 Sen o‘zing
> esa og‘ir ichak xastaligiga yo‘liqasan. Ichak–chovoqlaring tashqariga chiqqunga
> qadar, xastaliging kundan–kunga kuchayib boraveradi.”

16 Egamiz Filistlarni va Habashiston* yonida yashayotgan Arablarni Yohuramga
qarshi qo‘zg‘atdi. 17 Ular Yahudoga bostirib kelib, shoh saroyidagi hamma boyliklarni,
shohning o‘g‘illarini va xotinlarini olib ketdilar. Shohning Oxoziyodan* boshqa o‘g‘li
qolmadi. Oxoziyo shohning kenja o‘g‘li edi.

Shoh Yohuram xastalanib vafot etadi

18 Shundan keyin Egamiz shoh Yohuramni tuzalmas ichak xastaligiga yo‘liqtirdi.
19 Oradan ikki yil o‘tgach, Yohuramning xastaligi zo‘rayib, ichak–chovoqlari tashqariga
chiqdi. Yohuram qattiq azob–uqubat tortib, vafot etdi. Odamlar Yohuramning ota–
bobolari sharafiga gulxan yoqishgan bo‘lsa–da, Yohuramning sharafiga gulxan
yoqishmadi.
20 Yohuram taxtga o‘tirgan paytda o‘ttiz ikki yoshda bo‘lib, Quddusda sakkiz yil
hukmronlik qildi. Uning o‘limi uchun hech kim qayg‘urmadi. Garchi uni Dovud qal’asiga
dafn etgan bo‘lsalar–da, shohlar qabriga dafn qilmadilar.

22–BOB

Yahudo shohi Oxoziyo

1 Arablar bosqinchilik safari davomida Yohuramning kenja o‘g‘li Oxoziyodan boshqa
hamma o‘g‘illarini qatl qilgan edilar. Shuning uchun Quddus aholisi Oxoziyoni o‘zlariga
shoh qilishdi. 2 Oxoziyo taxtga o‘tirganda, yigirma ikki* yoshda edi. U Quddusda bir yil
shohlik qildi. Onasining ismi Otaliyo bo‘lib, Isroil shohi Omrining nevarasi edi. 3 Oxoziyo
ham Axab xonadoni yo‘lidan yurdi, chunki onasi unga qabih ishlar qilishni maslahat
berardi. 4 Oxoziyo Axab nasliga o‘xshab, Egamiz oldida qabihliklar qildi. Otasi
Yohuramning vafotidan keyin, shoh Axab xonadonining boshqa a’zolari Oxoziyoning
maslahatchilari bo‘lib, uni halokatga boshladilar. 5 Oxoziyo ularning maslahatiga kirib,
Isroil shohi Axab o‘g‘li Yoram* bilan birga Giladdagi* Ramo‘tga borib, Oram shohi
Xazayilga qarshi urush ochdi. Shoh Yoram shu urushda yarador bo‘ldi. 6 U yarasini
davolatish uchun Yizril shahriga* qaytib keldi. Yahudo shohi Oxoziyo* esa yaralangan
Yoramni ko‘rgani Yizrilga bordi.

7 Xudo Oxoziyoning bu tashrifini uning halokati uchun ishlatdi. Oxoziyo Yoramnikiga
yetib borgach, Yoram bilan birgalikda Nimshining nevarasi* Yohuni kutib olgani chiqdi.
Yohuni Egamiz Axab xonadonini qatl qilish uchun tanlagan edi. 8 Yohu Axab xonadoni
ustidan chiqarilgan hukmni ijro etayotgan paytda, Oxoziyo bilan birga kelgan Yahudo
a’yonlariga va Oxoziyoning jiyanlariga duch keldi. Ularning hammasini bitta qoldirmay
qirib yubordi. 9 So‘ng Oxoziyoni qidira boshladi. Yohuning odamlari Samariyada
yashirinib yurgan Oxoziyoni qo‘lga oldilar. Uni Yohuning oldiga olib kelib o‘ldirdilar.
Ammo keyin dafn qildilar, chunki ular: “Eha, bu Egamizga chin yurakdan intilgan
Yohushafatning nevarasi–ku!” deb aytgan edilar. Oxoziyo xonadonida shohlik qiladigan
hech bir kimsa qolmadi.

Yahudo malikasi Otaliyo taxtga o‘tiradi

10 Otaliyo* o‘z o‘g‘li shoh Oxoziyoning o‘ldirilganini eshitgach, Yahudoda Oxoziyoning
jamiki urug‘ini qirib tashlashga kirishdi. 11 Shohning hamma o‘g‘illarini o‘ldirish
rejalashtirilgan edi. Shoh Yohuramning Yohusheva* degan qizi bor edi. Yohusheva
Oxoziyoning o‘gay singlisi bo‘lib, ruhoniy Yohayidoga turmushga chiqqan edi.
Yohusheva Oxoziyoning o‘g‘li Yo‘shni shohning o‘g‘illari orasidan bildirmasdan olib
qochdi. Otaliyo bolani o‘ldirmasligi uchun, uni enagasi bilan birga Egamizning uyidagi
yotoqxonaga yashirdi. 12 Otaliyo yurtni boshqargan paytda, bola olti yil davomida
Xudoning uyida ular bilan birga yashirinib yurdi.

23–BOB

Otaliyoga qarshi isyon

1 Yettinchi yili ruhoniy Yohayido qo‘rqmay harakatga tushdi. U quyidagi yuzboshilar
bilan ahd qildi: Yeroxam o‘g‘li Ozariyo, Yohuxanon o‘g‘li Ismoil, Obid o‘g‘li Ozariyo,
Odayo o‘g‘li Masiyo va Zixri o‘g‘li Elishafat. 2 Ular Yahudo yurtini kezib chiqdilar,
Yahudoning hamma shaharlaridan levilarni va Isroil urug‘boshilarini yig‘ib, Quddusga
olib keldilar. 3 Kelganlarning hammasi Xudoning uyiga yig‘ilib, o‘sha yerda shoh bilan
ahd qildilar. Yohayido ularga shunday dedi:

— Mana shohning o‘g‘li! Egamizning Dovud o‘g‘illari haqida bergan va’dasiga
muvofiq, bu o‘g‘il hukmronlik qilsin. 4 Endi sizlar bunday qilasizlar: Shabbat kuni xizmat
qiladigan ruhoniy va levilarning uchdan bir qismi darvozalarni qo‘riqlasin. 5 Uchdan biri
— shohning uyida, uchdan biri esa Asos darvozasida bo‘lsin. Xalq ommasi Egamiz
uyining hovlilarida tursin. 6 Egamizning uyiga ruhoniylar bilan xizmatdagi levilardan
boshqa hech kim kirmasin. Faqat ular kira oladilar, chunki ular muqaddasdirlar. Qolgan
odamlar Egamizning ko‘rsatmalariga rioya qilib, tashqarida qolsinlar. 7 Levilar qo‘lida
quroli bilan shohni har tomondan o‘rab olsinlar, Egamizning uyiga kim kirsa o‘ldirilsin.
Shoh kirganda ham, chiqqanda ham, unga hamroh bo‘linglar.
8 Levilar va butun Yahudo xalqi ruhoniy Yohayidoning amrlarini so‘zsiz bajardilar.
Har bir yuzboshi Shabbat kuni xizmatini boshlagan va xizmatini tugatgan qo‘riqchilarini
olib qoldi, chunki o‘sha kuni Yohayido qo‘riqchilarining birorta bo‘linmasiga ketishga
ijozat bermagan edi. 9 Ruhoniy Yohayido Xudoning uyida turgan shoh Dovudning
nayzalarini hamda katta va kichik qalqonlarini yuzboshilarga tarqatdi. 10 Shohni
qo‘riqlash uchun uyning janub tomonidan shimol tomonigacha, qurbongohning va
uyning atrofiga odamlarni jangga shay holda joylashtirdi. 11 Yohayido Yo‘shni tashqariga
olib chiqib, boshiga toj kiydirdi. Unga shohlik qonunlarini* berdi. Yo‘sh shoh deb e’lon
qilindi. Yohayido va uning o‘g‘illari Yo‘shning boshiga moy surtishdi, so‘ngra:
“Shohimizning umrlari uzoq bo‘lsin!” deya hayqirishdi.

Otaliyo o‘ldiriladi

12 Otaliyo yugurayotgan va shohni olqishlayotgan xalqning shovqin–suronini
eshitgach, Egamizning uyiga, u yerda yig‘ilganlarning yoniga bordi. 13 Qarasaki, odatga
ko‘ra, Egamizning uyiga kiraverishdagi ustun oldida shoh turibdi, shohning atrofini
lashkarboshilar, karnaychilar o‘rab olgan. Yurtning butun xalqi shod–xurram, karnay
chalyapti, qo‘shiqchilar musiqa asboblari jo‘rligida bayram o‘tkazyapti. Shunda Otaliyo
g‘azabdan liboslarini yirtib: “Xoinlik! Xoinlik!” deb baqirdi. 14 Ruhoniy Yohayido
yuzboshilarni chaqirib: “U xotinni bu yerdan olib chiqib ketinglar, kimki unga ergashsa,
qilichdan o‘tkazinglar”, deb buyruq berdi. Ruhoniy o‘sha ayolning Egamiz uyida
o‘ldirilishini istamadi. 15 Otaliyo ushlandi va saroyning Ot darvozasiga keltirilib, o‘sha
yerda qatl qilindi.

Ruhoniy Yohayidoning islohotlari

16 Ruhoniy Yohayido xalq, shoh va Egamiz orasida “Biz Egamizning xalqi bo‘lamiz”
deb ahd tuzdi. 17 So‘ng butun xalq Baalning uyiga borib, uni buzib tashladi, u yerdagi
qurbongohlarni va Baalning tasvirlarini sindirdi, Baalning ruhoniysi Mattonni esa
qurbongohlarning ro‘parasida o‘ldirdi.
18 Yohayido Dovud bergan ko‘rsatmalarga rioya qilgan holda, Egamiz uyining
nazoratini levi ruhoniylariga topshirdi. Ularga, Musoning qonunida yozilganiday,
Egamizga kuydiriladigan qurbonliklar keltirishni va Dovud amr etganday, shod–
xurramlik bilan qo‘shiq aytishni buyurdi. 19 Hech kim Egamizning uyiga harom bo‘lib
kirmasin deb, darvozaga soqchilarni joylashtirdi. 20 So‘ngra yuzboshilarni, aslzodalarni,
xalq yo‘lboshchilarini va jamiki xalqni yoniga olib, shohni Egamizning uyidan olib
chiqdi. Ular Yuqori darvozadan o‘tib, shohni saroyga olib keldilar va taxtga o‘tqazdilar
21 Otaliyo o‘ldirilgani uchun yurt xalqi sevindi. Quddus osoyishta bo‘lib qoldi.

24–BOB

Yahudo shohi Yo‘sh

1 Yo‘sh shoh bo‘lganda, yetti yoshda edi. U Quddusda qirq yil hukmronlik qildi. Onasi
Bersheba shahridan bo‘lib, ismi Zibiyox edi. 2 Ruhoniy Yohayido hayotligida Yo‘sh
Egamizning oldida to‘g‘ri ishlar qildi. 3 Yohayido Yo‘shga ikkita xotin olib berdi. Ular
Yo‘shga o‘g‘il–qizlar tug‘ib berishdi.
4 Oradan bir oz vaqt o‘tgach, Yo‘sh Egamizning uyini tuzatishga qaror qildi. 5 U
ruhoniylarni va levilarni to‘plab, ularga aytdi:
— Yahudo shaharlariga borib, Xudoyingizning uyini tuzatish uchun jamiki Isroil
xalqidan yiliga to‘lanadigan soliqni yig‘ib kelinglar. Bu ishni tezlik bilan bajaringlar.
Lekin levilar bu ishni orqaga surdilar. 6 Shunda shoh oliy ruhoniy Yohayidoni
chaqirtirib, undan so‘radi:
— Nimaga siz levilarni soliq yig‘ib kelishlari uchun jo‘natmadingiz? Egamizning quli
Muso Muqaddas ahd chodirining* xarajatlarini qoplash uchun bu soliqni Isroil
jamoasiga solgan–ku.
7 Qabih ayol Otaliyoning izdoshlari Xudoning uyiga bostirib kirib, u yerdagi
Egamizga bag‘ishlangan ashyolarni Baalning sajda marosimlari uchun ishlatgan edilar.
8 Shohning buyrug‘i bilan bir quti yasalib, Egamiz uyi darvozasining tashqi tomoniga
o‘rnatildi. 9 “Xudoning quli Muso sahroda Isroil xalqiga solgan soliqni Egamizga olib
kelinglar”, deb Yahudo va Quddus bo‘ylab e’lon qilindi. 10 Jamiki yo‘lboshchilar va xalq
bajonidil soliq pullarini olib kelib, qutini to‘ldiraverdilar. 11 Qutida ko‘p pul yig‘ilgandan
keyin, levilar qutini shoh a’yonlariga olib borishar edi. Shohning mirzasi bilan oliy
ruhoniyning yordamchisi qutini bo‘shatib, uni o‘z joyiga qaytarib qo‘yishar edi. Ular har
kuni shunday qilishardi. Shu tariqa ko‘p miqdorda kumush to‘plashdi. 12 Shoh va
Yohayido bu kumushlarni Egamizning uyidagi ishlarning boshida turgan odamlarga
berdi. Ular esa bu kumushga Egamizning uyini tuzatish uchun tosh teruvchilar,
duradgorlar, temir va bronzaga ishlov beradigan ustalarni yolladilar.
13 Hammalari chin yurakdan mehnat qilishdi, Xudoning uyini oldingi holatida tiklab,
mustahkamlashdi. 14 Ular hamma ishlarni tugatishgach, qolgan kumushlarni shoh bilan
Yohayidoga berishdi. Bu kumushlardan Egamizning uyi uchun buyumlar — xizmatda va
qurbonliklar kuydirishda ishlatiladigan idishlar, shuningdek, oltin va kumush anjomlar
yasaldi. Ruhoniy Yohayido davrida Egamizning uyida doimo kuydiriladigan
qurbonliklar keltirilardi.

Ruhoniy Yohayidoning siyosati bekor qilinadi

15 Yohayido rosa keksayib, bir yuz o‘ttiz yoshida vafot etdi. 16 U Isroil xalqi, Xudo va
Xudoning uyi uchun qilgan xizmatlari evaziga Dovud qal’asida shohlar yoniga dafn
qilindi.
17 Yohayidoning vafotidan keyin Yahudo a’yonlari shoh huzuriga kelishib, unga
ta’zim qildilar. Shoh ularning maslahatlariga quloq soldi. 18 Natijada xalq ota–
bobolarining Xudosi — Egamizning uyini tark etib, Asheraning* ustunlariga va butlarga
sig‘ina boshladi. Ularning bu gunohlari tufayli, Yahudo va Quddus ustiga Egamiz
g‘azabini sochdi. 19 U, xalqimni qaytaray deb, oldilariga payg‘ambarlarni yubordi. Biroq
xalq payg‘ambarlarning ogohlantirishlariga quloq solmadi.

20 Xudoning Ruhi ruhoniy Yohayidoning o‘g‘li Zakariyoni qamrab oldi. Zakariyo
xalqning oldida turib, shunday deb aytdi:
— Xudo shunday demoqda: “Nimaga sizlar Mening amrlarimga itoat etmayapsizlar?
Shuning uchun rohat–farog‘atga erisholmaysizlar. Sizlar Men, Egangizni tark
etganlaringiz uchun, Men ham sizlarni tark etaman.”
21 A’yonlar Zakariyoga qarshi fitna uyushtirdilar. Shohning farmoni bilan uni
Egamizning uyi hovlisida toshbo‘ron qilib o‘ldirdilar. 22 Shoh Yo‘sh Zakariyoning otasi
Yohayido ko‘rsatgan sadoqatini eslamadi, aksincha, uning o‘g‘lini o‘ldirdi. Zakariyo jon
berayotganda: “Egamiz bu qilmishingizni ko‘rib, jazoingizni bersin”, dedi.

Shoh Yo‘sh hukmronligining so‘nggi davri

23 O‘sha yilning oxirida* Oram lashkari Yo‘shga hujum qildi. Ular Yahudo va
Quddusni bosib olib, hamma xalq yo‘lboshchilarini o‘ldirishdi, olgan hamma o‘ljalarini
Damashq shohiga jo‘natishdi. 24 Garchi Oram lashkari ozchilik bo‘lsa ham, Egamiz
ularning qo‘liga Yahudoning katta lashkarini topshirgandi. Chunki Yahudo xalqi ota–
bobolarining Xudosi — Egamizni tark etgandi. Shunday qilib, shoh Yo‘sh jazosini oldi.
25 Yo‘sh jangda og‘ir yaralandi. Oram lashkari ketishlari bilanoq, Yo‘shning ikki
a’yoni unga fitna uyushtirdilar. Ular ruhoniy Yohayidoning o‘ldirilgan o‘g‘li uchun
Yo‘shdan o‘ch olib, uni o‘z to‘shagida o‘ldirdilar. Yo‘shni Dovud qal’asiga dafn qildilar,
biroq shohlar qabriga uni qo‘ymadilar. 26 Yo‘shga fitna uyushtirganlar Ommonlik Shimat
degan ayolning o‘g‘li Yo‘zabad* va Mo‘ablik Sho‘mer* degan ayolning o‘g‘li Yohuzabad
edilar. 27 Yo‘shning o‘g‘illari to‘g‘risidagi to‘liq axborot, Yo‘shga qarshi aytilgan ko‘p
bashoratlar va Xudoning uyi tuzatilgani to‘g‘risidagi ma’lumotlar “Shohlar kitobiga
sharhlar”da bayon etilgan. Yo‘shning o‘rniga o‘g‘li Emoziyo shoh bo‘ldi.

25–BOB

Yahudo shohi Emoziyo

1 Emoziyo taxtga o‘tirgan paytda, yigirma besh yoshda edi. U Quddusda yigirma
to‘qqiz yil hukmronlik qildi. Onasi Qudduslik bo‘lib, ismi Yohuvaddon edi. 2 Emoziyo
Egamiz oldida to‘g‘ri ishlar qildi, ammo chin yurakdan qilmagan edi. 3 Emoziyo o‘z
shohligini mustahkamlab olgandan keyin, otasini o‘ldirgan a’yonlarni yo‘q qildi. 4 Biroq
Musoning qonunida yozilganiga ko‘ra, qotillarning bolalarini o‘ldirmadi, chunki Egamiz:
“Otalar farzandlarining gunohi uchun o‘ldirilmasin, farzandlar otalarining gunohi uchun
o‘ldirilmasin, har kim o‘zining gunohi uchungina o‘lim jazosiga tortilsin”, deb amr qilgan
edi*.

Edom yurtiga qarshi urush

5 Emoziyo Yahudo va Benyamin qabilalarini, ularning urug‘lariga ko‘ra, harbiy
qismlarga bo‘ldi. Ular ustidan mingboshi va yuzboshilarni tayinladi. Emoziyoning
lashkari yigirma va undan yuqori yoshdagi 300.000 saralangan jangchidan tashkil
topgan bo‘lib, ularning hammasi urushga yaroqli, qilich va qalqonni mohirlik bilan
ishlata olar edi. 6 Bulardan tashqari, Emoziyo 200 pud* kumushga Isroildan 100.000
bahodir jangchini yolladi. 7 Lekin Xudoning bir odami Emoziyoning huzuriga kelib, shu
gapni aytdi:
— Ey shoh! Isroil lashkari sen bilan bormasin, chunki Egamiz ular bilan emas. Isroil*

xalqiga yordam berishdan Egamiz voz kechgan. 8 Sen jasorat bilan jang qilsang ham,
baribir Xudo seni g‘animlaring oldida mag‘lub qiladi, chunki yordam beradigan va
mag‘lub qiladigan Xudodir.
9 Emoziyo Xudoning odamidan so‘radi:
— Isroil lashkari uchun to‘lagan ikki yuz pud kumush nima bo‘ladi?
Xudoning odami:
— Egamiz senga bundan ham ko‘prog‘ini berishga qodir, — deya javob berdi.
10 Shundan keyin Emoziyo Isroildan* kelgan lashkarga javob berib, ularni uylariga
qaytarib yubordi. Ular Yahudo xalqidan qattiq g‘azablanib, jahl ustida uylariga qaytib
ketdilar.
11 Emoziyo jasorat ko‘rsatib, lashkarini Tuz vodiysiga* boshlab bordi. U yerda
Edomliklardan* 10.000 nafarini o‘ldirdi. 12 Yahudo lashkari ularning yana 10.000
nafarini tiriklayin asirga olib, qoya cho‘qqisidan pastga itarib yubordi. Ularning
hammasi toshlarga urilib halok bo‘ldilar.
13 Shu orada Emoziyo orqaga qaytarib yuborgan Isroil lashkari Samariya bilan Bayt–
Xo‘ron oralig‘idagi Yahudo shaharlariga hujum qildi, ular 3000 kishini o‘ldirib, ko‘p o‘lja
oldilar.
14 Emoziyo Edomliklarni mag‘lub qilgandan keyin o‘zi bilan Edomliklarning
xudolarini olib keldi. Ularni o‘ziga xudo qilib o‘rnatdi, o‘sha xudolarga sajda qilib,
qurbonliklar keltirdi. 15 Egamiz bundan qattiq g‘azablanib, Emoziyoning huzuriga
payg‘ambarini yubordi. Payg‘ambar unga shu so‘zlarini aytdi:
— Nimaga sen begona xudolarga sajda qilyapsan? Bu xudolar o‘z xalqini sening
qo‘lingdan qutqara olmadi–ku!
16 — Qachondan beri sen shohning maslahatchisi bo‘lib qolding?! — deb
payg‘ambarning gapini bo‘ldi shoh. — Ovozingni o‘chir! Bo‘lmasa joningni olaman.
Payg‘ambarning gapi og‘zida qoldi, biroq u shohni shunday deb ogohlantirib qo‘ydi:
— Sen shu ishni qilib, mening maslahatimga quloq solmaganing uchun Xudo seni
nobud qilishga qaror qilganini bilaman.

Isroil xalqi Yahudo yurtini mag‘lub qiladi

17 Yahudo shohi Emoziyo o‘z a’yonlari bilan maslahatlashib, Isroil shohi Yoho‘shga*:
“Qani, menga jang maydonida ro‘baro‘ kelib ko‘r–chi*”, degan xabar jo‘natdi. Yoho‘sh
Yohuxozning o‘g‘li, Yohuning nabirasi edi.
18 Isroil shohi Yoho‘sh esa bunga javoban Yahudo shohi Emoziyoga shu xabarni
jo‘natdi: “Lubnon tog‘larida bir g‘ovtikan sadr daraxtiga, qizingni o‘g‘limga xotinlikka
ber, deb xabar yo‘llabdi. O‘sha paytda bir yirtqich hayvon o‘sha yerdan o‘tib ketayotib,
g‘ovtikanni bosib yanchib ketibdi. 19 Shunga o‘xshab sen ham: «Ko‘rib qo‘y, Edomni
mag‘lub qildim», deb maqtanib, yuraging kiborlikka to‘libdi. Uyingda o‘tiraver. Nima
uchun qitmirlik qilyapsan? O‘z boshingni ham, Yahudo xalqining boshini ham baloga
giriftor qilyapsan!”
20 Lekin Emoziyo quloq solmadi. Bu Xudoning ishi edi. Yahudo xalqi Edomning
xudolariga sajda qilgani uchun, Xudo ularni dushmanning qo‘liga berishga qaror qilgan
edi. 21 Shuning uchun Isroil shohi Yoho‘sh Yahudo shohi Emoziyo ustiga yurish qildi.
Ikkala tomonning lashkari Yahudoning Bayt–Shamash shahrida* ro‘baro‘ keldi. 22 Isroil
lashkari Yahudo lashkarini mag‘lub etdi. Yahudo lashkarining hammasi uylariga qochib

ketdi. 23 Isroil shohi Yohoʻsh Yahudo shohi Emoziyoni Bayt–Shamashda asir qilib oldi. Emoziyo Oxoziyoning* nevarasi, Yoʻshning oʻgʻli edi. Soʻng Yohoʻsh Emoziyoni Quddusga olib bordi. U yerda Quddus devorining Efrayim darvozasidan Burchak darvozasigacha boʻlgan 400 tirsak* qismini buzdirdi. 24 Xudoning uyida Obidadomning* nasli qoʻriqlagan hamma oltinu kumushni va ashyolarni tortib oldi. Bulardan tashqari, saroy xazinasini va asirlarni olib, Samariyaga qaytib ketdi.

25 Yahudo shohi Emoziyo Isroil shohi Yohoʻshning oʻlimidan keyin oʻn besh yil yashadi. 26 Emoziyoning boshqa ishlari boshdan oxirgacha “Yahudo va Isroil shohlari kitobi”da yozilgan. 27 Emoziyo Egamizdan yuz oʻgirgan vaqtda Quddusda unga qarshi fitna uyushtirildi. Emoziyo bundan xabar topib, Laxish shahriga* qochdi. Ammo dushmanlari Emoziyoning ortidan odam yuborib, uni oʻsha yerda oʻldirtirdilar. 28 Emoziyoning jasadini otda Quddusga olib keldilar. U Dovud qal’asida* ota–bobolarining yoniga dafn qilindi.

26–BOB

Yahudo shohi Uzziyo

1 Shundan keyin Yahudo xalqi oʻn olti yoshli Uzziyoni otasi Emoziyoning oʻrniga shoh qildi. 2 Emoziyoning vafotidan soʻng, Uzziyo ilgarilari Yahudoga qarashli boʻlgan Elet shahrini* qoʻlga kiritib, qaytadan qurdi.

3 Uzziyo shoh boʻlganda, oʻn olti yoshda edi. U Quddusda ellik ikki yil hukmronlik qildi. Onasi Qudduslik boʻlib, ismi Yoxoliyo edi. 4 Uzziyo ham, otasi Emoziyo kabi, Egamiz oldida toʻgʻri ishlar qildi. 5 Zakariyo hayotligi davrida Uzziyo Xudoga intilardi, Zakariyo unga Xudoning yoʻlidan yurishni oʻrgatardi*. Uzziyo Egamizga intilgan paytda, Xudo unga huzur–halovat bagʻishladi.

6 Uzziyo Filistlarga qarshi urush boshlab, Gat, Yobnax va Ashdod shaharlarining devorlarini buzib tashladi. U Ashdod hududida va Filistlarga qarashli boshqa joylarda shaharlar qurdi. 7 U Filistlarga, Gur–Baalda yashaydigan Arablarga va Mavunlarga qarshi urush qilganda, Xudo unga madad berdi. 8 Mavun xalqi* Uzziyoga oʻlpon toʻlaydigan boʻldi. U nihoyatda kuchayib ketganidan, shuhrati Misr chegarasigacha yoyildi. 9 Bundan tashqari, Uzziyo Quddusdagi Burchak darvozasi, Soylik darvozasi va devorning qayrilgan joylarida minoralar qurib, bu minoralarni mustahkamladi. 10 U sahroda mudofaa qoʻrgʻonlarini qurdirdi. Yahudo qir etaklarida va tekisliklarda boqilgan podalari koʻp boʻlgani uchun, koʻplab sardobalar qazdirdi. Dehqonchilikka ixlos qoʻygani uchun adirlaru unumdor yerlarda ekinlar ektirib, uzumzorlar barpo qildi. U yerda ishlaydigan dehqonu bogʻbonlari bor edi.

11 Uzziyoning mohir jangchilardan tashkil topgan lashkari bor edi. Bu jangchilarni kotib Yaviyol va uning yordamchisi Masiyo safarbar qilib, ularni boʻlinmalarga boʻlgan edi. Kotib Yaviyol bilan Masiyo Xanoniyoning qoʻli ostida ish olib borar edilar. Xanoniyo shohning a’yoni edi. 12 Bu saralangan jangchilarga 2600 urugʻboshi qoʻmondonlik qilardi. 13 Ularning qoʻli ostida jami 307.500 bahodir jangchi boʻlib, bu katta lashkar shohni dushmanlaridan himoya qilar edi. 14 Uzziyo butun lashkarni qalqonlar, nayzalar, dubulgʻalar, sovutlar, kamonlar va sopqon toshlari bilan ta’minlagan edi. 15 U Quddusdagi minoralar ustiga va shahar devori burchaklariga olimlari kashf etgan oʻq otadigan qurollar va katta toshlarni uloqtiradigan qurollarni oʻrnatdi. Xudo unga

yordam bergani uchun u nihoyatda qudratli bo‘lib, shuhrati har yoqqa taraldi.

Shoh Uzziyo takabburligi uchun jazolanadi

16 Uzziyo kuchayib ketgandan keyin, halokatga olib boradigan kiborlikka berildi. U
Egamizning Ma’badiga kirib, tutatqi qurbongohida tutatqi tutatdi, shu yo‘sin o‘zining
Egasi Xudoga itoatsizlik qildi. 17 Ruhoniy Ozariyo Egamizning saksonta jasur ruhoniysi
bilan birga Uzziyoning ketidan bordi. 18 Ular shoh Uzziyoga tanbeh berib deyishdi:
— Ey shohimiz! Egamizga tutatqi tutatish sizning ishingiz emas. Bu Horun naslidan
bo‘lgan ruhoniylarning ishidir*. Tutatqi tutatishga ular bag‘ishlanganlar. Qani bo‘ling, bu
muqaddas joydan chiqib keting! Siz o‘zboshimchalik qildingiz. Bu qilmishingiz uchun
Parvardigor Egamiz sizni yuksaltirarmidi?!
19 Uzziyo o‘sha paytda qo‘lidagi olovkuragi bilan tutatqi tutatishga tayyor bo‘lib
turgan edi. U ruhoniylarning tanbehidan qattiq g‘azablangan edi, shu zahotiyoq
peshanasiga yara toshdi*. Bu hodisa Egamizning uyidagi tutatqi qurbongohi oldida,
ruhoniylarning ko‘z o‘ngida sodir bo‘ldi. 20 Oliy ruhoniy Ozariyo bilan boshqa ruhoniylar
shoh peshanasidagi qo‘rqinchli yaralarni ko‘rishgach, shohni tashqariga olib chiqishga
shoshildilar. Shohning o‘zi ham tashqariga otlandi, chunki Egamiz uni jazolagan edi.
21 Uzziyo umrining oxirigacha teri kasalligidan tuzalmadi. U alohida bir uyda yolg‘iz
yashadi. Egamizning uyiga kirish unga man etilgan edi. Yurtdagi xalqni ham, shoh
saroyini ham o‘g‘li Yo‘tom boshqarardi.
22 Uzziyoning boshqa ishlarini boshdan oxirgacha Omiz o‘g‘li Ishayo payg‘ambar
yozib qoldirgan. 23 Uzziyo olamdan o‘tib, shohlar qabristonining bir chetiga dafn qilindi.
Biroq teri kasalligiga chalingani uchun uni shohlar xilxonasiga qo‘ymadilar. Uning
o‘rniga o‘g‘li Yo‘tom shoh bo‘ldi.

27–BOB

Yahudo shohi Yo‘tom

1 Yo‘tom yigirma besh yoshida shoh bo‘lib, Quddusda o‘n olti yil hukmronlik qildi.
Onasining ismi Yerusha bo‘lib, u Zodo‘xning qizi edi. 2 Yo‘tom, otasi Uzziyo kabi, Egamiz
oldida to‘g‘ri ishlar qildi. Ammo otasidan farqli ravishda Egamizning Ma’badida tutatqi
tutatmadi*. Xalq esa hamon buzuq odatlarini davom ettirardi.
3 Yo‘tom Egamiz uyining Yuqori Darvozasini qurdi va Ofel tepaligidagi* devor ustida
katta ishlarni olib bordi. 4 Bundan tashqari, u Yahudoning qirlarida shaharlar,
o‘rmonzorlarda qal’alar va minoralar qurdirdi. 5 U Ommonliklarga qarshi jang qilib,
ularni bo‘ysundirdi. Ommonliklar uch yil davomida Yo‘tomga quyidagi miqdordagi
o‘lponni to‘lashga majbur bo‘ldilar: 200 pud* kumush, 100.000 tog‘ora* bug‘doy va
100.000 tog‘ora arpa.
6 Yo‘tom Egasi Xudoga sodiqlik bilan itoat etgani uchun qudratli bo‘lib ketdi.
7 Yo‘tomning boshqa ishlari, qilgan janglari va tutgan yo‘llari “Isroil va Yahudo
shohlari kitobi”da yozilgan. 8 U yigirma besh yoshida shoh bo‘lib, Quddusda o‘n olti yil
hukmronlik qildi. Onasining ismi Yerusha bo‘lib, u Zodo‘xning qizi edi. 9 Yo‘tom olamdan
o‘tib, Dovud qal’asida dafn qilindi. O‘rniga o‘g‘li Oxoz shoh bo‘ldi.

28–BOB

Yahudo shohi Oxoz

1 Oxoz yigirma yoshida shoh bo‘lib, Quddusda o‘n olti yil hukmronlik qildi. U bobosi
Dovuddan namuna olmadi, Egamizning oldida to‘g‘ri ishlar qilmay, 2 Isroil shohlarining
yo‘lidan ketdi. U Baalga sajda qilish uchun Baalning quyma tasvirlarini yasadi. 3 Xinnum
soyligida* butlarga atab qurbonliklar kuydirdi. Kan’on yurtidan Egamiz quvgan
qavmlarning jirkanch odatlariga taqlid qilib, hatto o‘z o‘g‘illarini qurbonlik qilib, olovda
kuydirdi*. 4 Sajdagohlarda*, tepaliklarda va har qanday yashil daraxt ostida qurbonliklar
keltirib, tutatqi tutatardi.

Oram va Isroil xalqlari Yahudo yurtiga hujum qiladi

5 Shoh Oxoz gunoh qilgani uchun, Egasi Xudo uni Oram shohining qo‘liga berdi. Oram
shohi Oxozni mag‘lub qilib, xalqidan juda ko‘pchiligini asir qilib, Damashqqa olib ketdi.

Bundan tashqari, Egamiz shoh Oxozni Isroil shohi qo‘liga berdi. Isroil shohi
Oxozning boshiga katta qirg‘in solib, uni mag‘lub qildi. 6 Bir kunning o‘zida Isroil shohi
Ramaliyo o‘g‘li Pekax Yahudo lashkarining 120.000 bahodir jangchisini o‘ldirdi. Bunga
sabab Yahudo xalqi o‘z ota–bobolarining Xudosi — Egamizni tark etgani bo‘ldi. 7 Isroil*
xalqidan bo‘lgan bahodir jangchi Zixri shohning o‘g‘li Masiyoni, saroy boshqaruvchisi
Ozrikomni va shohning o‘ng qo‘l vaziri Elqanani o‘ldirdi. 8 Yahudo xalqi ularga
qarindosh bo‘lishiga qaramay, Isroil lashkari ulardan 200.000 nafar ayol va o‘g‘il–
qizlarini asir qilib, katta o‘lja bilan birga, Samariyaga olib ketishdi.

Odod payg‘ambar

9 Egamizning Odod degan payg‘ambari Samariyada edi. U qaytib kelgan Isroil
lashkarini qarshilab chiqib, ularga shunday dedi:

— Ota–bobolaringizning Xudosi — Egangiz O‘z xalqi Yahudodan g‘azablangani
uchun ularni sizning qo‘lingizga topshirdi. Sizlar esa ularni shunchalik qahr bilan
qirdingizki, ularning sadosi samolarga yetdi. 10 Shunisi yetmaganday, sizlar Yahudo va
Quddus xalqining erkagu ayolini o‘zingizga qul qilmoqchi bo‘ldingiz. O‘zingizga bir
qarang, Egangiz Xudo oldida qilgan qilmishlaringizning hammasi turgan–bitgani gunoh–
ku! 11 Endi gapimni eshiting! Asir qilgan bu qarindoshlaringizni orqaga qaytarib
yuboring. Aks holda, Egamiz O‘z g‘azabini sizning ustingizga sochadi.

12 Isroil* xalqining ba’zi yo‘lboshchilari ham, chunonchi, Yo‘xanon o‘g‘li Ozariyo,
Mashillamo‘t o‘g‘li Barxiyo, Shallum o‘g‘li Yoxizqiyo va Hadlay o‘g‘li Emosa urushdan
qaytib kelganlarga o‘z noroziligini bildirib, 13 dedilar:

— Asirlarni bu yerga olib kelmanglar! Biz Egamizga qarshi gunoh qilib, Uning
qahrini keltirib bo‘ldik. Sizlar esa shusiz ham ortib yotgan gunohimiz ustiga yana gunoh
orttirmoqchisizlar.

14 Shunda sipohlar Isroil a’yonlari va butun jamoa oldida asirlarni ozod qilib,
o‘ljalarni topshirdilar. 15 Yuqorida nomlari aytilgan to‘rtta yo‘lboshchi asirlarning
orasidagi yalang‘och bo‘lganlarning hammasiga o‘lja olingan narsalardan ust–bosh,
oyoq kiyim berdilar, yedirdilar, ichirdilar, yaralariga moy surtdilar. Keyin zaiflarni
eshaklarga mindirib, asirlarning hammasini Yahudoga qarashli palma shahri Yerixoga
olib bordilar. So‘ng Samariyaga qaytib keldilar.

Shoh Oxoz Ossuriyadan yordam so‘raydi

16 O‘sha paytda shoh Oxoz Ossuriya shohidan yordam so‘rab, huzuriga odam jo‘natdi,
17 chunki Edomliklar yana Yahudo yurtiga hujum qilib, ko‘p asirlarni olib ketgan edilar.
18 Shu orada Filistlar ham Yahudo qir etaklaridagi hamda Nagav cho‘lidagi* shaharlarga hujum qilib, Bayt–Shamash, Oyjavlon va Gadero‘t shaharlarini qo‘lga kiritdilar, shuningdek, So‘xu, Timnax va Gimzo shaharlarini va bu shaharlar atrofidagi qishloqlarni qo‘lga olib, o‘sha joylarga o‘rnashib oldilar. 19 Shoh Oxoz Yahudo xalqini gunoh qilishga undab, Egamizga haddan tashqari ko‘p xiyonat qilgani uchun, Yahudo xalqini Egamiz shu qadar tahqirlagan edi. 20 Ossuriya shohi Tig‘latpilasar* kelib, Oxozga yordam berish o‘rniga zulmni kuchaytirdi. 21 Oxoz Egamizning uyidan, shoh saroyidan va a’yonlarning uyidan qimmatbaho narsalarni olib, Ossuriya shohiga o‘lpon qilib berdi. Biroq bu ham yordam bermadi.

Shoh Oxozning gunohlari

22 Hayotining eng qiyin damlarida ham o‘sha shoh Oxoz Egamizga yanada battarroq xiyonat qildi. 23 Uni mag‘lub qilgan Oram xalqining xudolariga qurbonliklar keltirdi. U ichida shunday derdi: “Oram shohlarining xudolari ularga yordam berdi, agar men Oram xudolariga qurbonlik keltirsam, ular menga ham yordam berishadi.” Vaholanki, bu xudolar shoh Oxozning va uning qo‘li ostidagi butun xalqning halokatiga sabab bo‘ldi.
24 Oxoz Egamizning uyidagi hamma ashyolarni yig‘ishtirib olib, chiqarib tashladi. Egamizning uyi eshiklarini berkitib, Quddusning har burchagida qurbongohlar qurdirdi.
25 Yahudoning hamma shaharlarida begona xudolarga qurbonliklar kuydirish uchun sajdagohlar barpo qilib, ota–bobolarining Xudosi — Egamizni g‘azablantirdi.

26 Oxozning boshqa ishlari va tutgan yo‘llari boshidan oxirigacha “Yahudo va Isroil shohlari kitobi”da yozilgan. 27 Oxoz olamdan o‘tib, Quddusda dafn qilindi. Lekin uni Isroil shohlari xilxonasiga ko‘mmadilar. Uning o‘rniga o‘g‘li Hizqiyo shoh bo‘ldi.

29–BOB

Yahudo shohi Hizqiyo

1 Hizqiyo yigirma besh yoshida shoh bo‘ldi. U Quddusda yigirma to‘qqiz yil shohlik qildi. Onasining ismi Abiyo bo‘lib, Zakariyoning qizi edi. 2 Hizqiyo, bobosi Dovud kabi, Egamiz oldida to‘g‘ri ishlar qildi.

Ma’bad poklanadi

3 Hizqiyo o‘z hukmronligining birinchi yili birinchi oyida* Egamizning uyi eshiklarini qaytadan ochdi*, ularni tuzattirdi. 4 So‘ng ruhoniylarni va levilarni chaqirtirib, ularni Ma’badning sharqiy hovlisiga to‘pladi. 5 Hizqiyo ularga dedi:

— Gapimni eshitinglar, ey levilar! O‘zlaringizni poklanglar, ota–bobolaringiz Xudosi — Egamizning uyini ham poklanglar! Bu muqaddas joydan harom narsalarni chiqarib tashlanglar! 6 Bizning ota–bobolarimiz bevafo edilar. Ular Egamiz Xudo oldida yomon ishlar qilib, Uni tark etdilar. Egamizning makonidan yuzlarini o‘girib, Unga orqalarini burdilar. 7 Ma’bad eshiklarini yopib tashladilar, chiroqlarni o‘chirib qo‘ydilar. Isroil xalqining Xudosiga atab, muqaddas maskanda tutatqi tutatilmaydigan, qurbonliklar kuydirilmaydigan bo‘ldi. 8 Shuning uchun Yahudo va Quddusga Egamiz O‘z qahrini sochdi. Ularning ahvolidan hamma yoqasini ushlab, dahshatu vahimaga tushdi. Siz

oʻzingiz ham bundan xabardorsiz. 9 Shuning uchun otalarimiz jangda halok boʻldi, xotinu
oʻgʻil–qizlarimiz asirlikka olib ketildi. 10 Egamiz bizdan Oʻz qahrini qaytarsin deb, men
Isroil xalqining Xudosi — Egamiz bilan ahd qilishga qaror etdim. 11 Oʻgʻillarim! Endi
eʼtiborsiz boʻlmanglar, chunki Egamiz sizlarni Uning huzurida xizmat qilishingiz uchun
va qurbonliklar kuydirishingiz uchun tanlab olgan.
12 Levilardan quyidagilar shu yerda edilar:

Qohot naslidan — Emosay oʻgʻli Maxat, Ozariyo oʻgʻli Yoʻel,
Marori naslidan — Abdi oʻgʻli Kish va Yoxalil oʻgʻli Ozariyo,
Gershon naslidan — Zimmo oʻgʻli Yoʻx, Yoʻx oʻgʻli Eden,
13 Elizofon naslidan — Shimri, Yoval,
Osif naslidan — Zakariyo, Mattaniyo,
14 Xaman naslidan — Yoxiyol, Shimax,
Yodutun naslidan — Shamayo va Uziyol.

15 Ruhoniylar bilan levilar qolgan levi birodarlarini toʻplab, hammasi oʻzlarini
pokladilar. Soʻng shohning farmoni boʻyicha, Egamizning qonun–qoidalariga rioya
qilgan holda, Egamizning uyini poklay boshladilar*. 16-17 Ular birinchi oyning* birinchi
kunida ishga kirishib, sakkiz kun davomida Egamiz uyining hovlilarini pokladilar.
Keyingi sakkiz kun davomida uyning oʻzini pokladilar. Ruhoniylar Egamizning uyiga
kirib, Maʼbaddagi hamma harom–xarish narsalarni Egamiz uyining hovlisiga olib
chiqdilar. Levilar esa bu narsalarni shahar tashqarisiga, Qidron soyligiga* olib borib
tashladilar. Birinchi oyning oʻn oltinchi kuniga kelib, hamma ishlarini tugatdilar.
18 Soʻngra ular shoh Hizqiyo huzuriga borib, shunday dedilar:
— Biz Egamizning butun uyini, qurbonlik kuydiriladigan qurbongohni va
qurbongohning hamma ashyolarini, muqaddas nonlar qoʻyiladigan xontaxtani va
xontaxtaning hamma ashyolarini pokladik. 19 Shoh Oxoz oʻz bevafoligi dastidan chiqarib
tashlagan hamma ashyolarni biz olib kelib, pokladik. Mana, ularning hammasi
Egamizning qurbongohi oldida turibdi.

Maʼbadda xizmat tiklanadi

20 Shoh Hizqiyo ertasi kuni saharda shahar aʼyonlarini toʻplab, hammalarini
Egamizning uyiga boshlab bordi. 21 Ular shoh xonadonining va Yahudo xalqining
gunohini yuvish uchun hamda Maʼbadni poklash uchun gunoh qurbonligi* qilib yettita
buqa, yettita qoʻchqor, yettita qoʻchqor qoʻzi va yettita takani olib keldilar. Horun
naslidan boʻlgan ruhoniylarga shoh: “Bularni Egamizning qurbongohida nazr qilinglar!”
deb buyurdi. 22 Ruhoniylar buqalarni soʻyib, qonini qurbongohga sepdilar. Keyin
qoʻchqorlarni soʻyib, qonini qurbongohga sepdilar. Qoʻzilarni ham soʻyib, qonini
qurbongohga sepdilar. 23 Soʻngra gunoh qurbonligi qilinadigan takalarni shoh va jamoa
oldiga olib keldilar. Ular qoʻllarini takalar ustiga qoʻydilar. 24 Ruhoniylar takalarni
soʻydilar, butun xalqni gunohlaridan poklash uchun qonni qurbongohga sepdilar.
Negaki, shoh: “Kuydiriladigan qurbonliklar va gunoh qurbonliklari jamiki Isroil uchun
qilinsin”, deb farmon bergan edi.
25 Hizqiyo shoh Dovudning koʻrsatmalariga rioya qilib, levilarni Egamizning uyiga
joylashtirdi, ularga zil, arfa va liralarni berdi. Bu koʻrsatmalarni Dovudga Egamiz Oʻz
paygʻambarlari Gad va Natan orqali bergan edi. Gad shoh Dovudning xizmatidagi valiy

edi. 26 Levilar Dovudning cholg‘u asboblarini olib, ruhoniylar karnaylarini olib, o‘z
joylarini egalladilar. 27 Shundan keyin Hizqiyo: “Qurbongohda qurbonliklar kuydirilsin!”
deb buyurdi. Qurbonliklar kuydirila boshlangan zahoti qo‘shiqchilar Dovudning cholg‘u
asboblari va karnaylar jo‘rligida Egamizga hamdu sanolar aytishni boshladilar.
28 Qurbonliklar kuydirilib bo‘lguncha, butun jamoa sajda qilib, qo‘shiqchilar qo‘shiq
aytib, karnaychilar karnay chalib turdilar. 29 Qurbonlik tugagach, shoh Hizqiyo va butun
xalq tiz cho‘kib, Xudoga sajda qildi. 30 Shoh Hizqiyo bilan a’yonlar levilarga: “Dovud va
valiy Osif yozgan sanolarni aytib, Egamizni madh qilinglar!” deb buyurdilar. Levilar
sevinch ila sano kuylab, tiz cho‘kib sajda qildilar.
31 Keyin Hizqiyo xalqqa dedi:
— Mana, sizlar o‘zingizni Egamizga bag‘ishladingizlar. Endi atagan qurbonligu
shukrona nazrlaringizni Egamizning uyiga olib kelinglar.
Jamoa qurbonliklar va shukrona nazrlarini keltirdi. Ba’zilari esa ko‘ngildan chiqarib
kuydiriladigan qurbonlik uchun hayvonlarni ham olib keldilar. 32 Kuydiriladigan
qurbonlik uchun 70 ta buqa, 100 ta qo‘chqor va 200 ta qo‘zi keltirildi. 33 Bulardan
tashqari, jamoa 600 ta buqa va 3000 ta qo‘yni qurbonlik qilish uchun olib keldi. 34 Ammo
ruhoniylar ozchilik bo‘lganlari uchun kuydiriladigan hayvonlarning terisini shilishga
ulgura olmayotgan edilar. Shu sababdan ularning qarindoshlari levilar to ish
tugaguncha va boshqa ruhoniylar o‘zlarini poklaguncha ularga qarashib turdilar.
Levilar, ruhoniylarga qaraganda, o‘zlarini poklash masalasiga jiddiyroq yondashgan
edilar. 35 Kuydiriladigan qurbonliklarning miqdori nihoyatda ko‘p edi. Bulardan
tashqari, tinchlik qurbonliklarining yog‘lari va kuydiriladigan qurbonliklar bilan birga
keltiriladigan sharob nazri ham g‘oyatda mo‘l edi. Shu yo‘sinda, Egamiz uyidagi xizmat
qayta tiklandi. 36 Xudoning O‘z xalqiga qilgan bu ishidan Hizqiyo va butun jamoa sevindi.
Bularning hammasi qisqa vaqtda sodir bo‘lgan edi.

30–BOB

Shoh Hizqiyo Fisih ziyofati va Xamirturushsiz non bayramini nishonlaydi

1-4 Isroil xalqi Fisih ziyofatini* o‘z vaqtida — birinchi oyda* nishonlay olmagan edi,
chunki ko‘p ruhoniylar o‘zlarini hanuz poklamagan va odamlarning aksariyat qismi
Quddusga yig‘ilmagan edi. Shuning uchun shoh Hizqiyo, uning a’yonlari va Quddusdagi
jamoa Fisih ziyofatini ikkinchi oyda* nishonlashga qaror qildilar. Shoh Hizqiyo butun
Isroil va Yahudo xalqiga, shuningdek, Efrayim va Manashe qabilalariga bu haqda xabar
jo‘natib, ularni Isroil xalqining Xudosiga — Egamizga atalgan Fisih ziyofatini nishonlash
uchun Egamizning Quddusdagi uyiga taklif qildi.
5 Janubdagi Bershebadan tortib, to shimoldagi Dan shahrigacha bo‘lgan Isroil
hududlarida istiqomat qilgan hamma odamlar Fisih ziyofatini nishonlash uchun
Quddusga taklif qilindi. Negaki bu ziyofat ancha vaqtdan beri, qonunda ko‘rsatilganday,
butun xalq tomonidan nishonlanmagan edi. 6 Choparlar shoh va uning a’yonlari
nomidan yozilgan maktubni butun Isroil va Yahudo xalqlariga yetkazdilar. Maktubda
quyidagilar bitilgan edi:

“Ey Ossuriya bosqinchilaridan* omon qolgan Isroil xalqi! Ibrohimning,
Is’hoqning va Yoqubning* Xudosi — Egamizga qaytinglar, shunda U ham sizga

qaytadi. 7 Egasi Xudoga xiyonat qilgan ota–bobolaringizga va Isroillik
qarindoshlaringizga o‘xshamanglar. O‘zingiz ko‘rib turganingizday Xudo ularni
qattiq jazoladi. 8 Ota–bobolaringiz singari qaysar bo‘lmanglar, Egamizga
bo‘ysuninglar, Uning Ma’badiga kelinglar. Egamiz Ma’badni abadiy muqaddas
qilgan. Egangiz Xudoga sajda qilinglar, ana shunda U g‘azabidan tushadi. 9 Agar
Egamizga qaytsangiz, qarindoshu bola–chaqalaringizni asir qilgan bosqinchilar
ularga rahm qiladilar, uylariga qaytib kelishlariga yo‘l qo‘yadilar. Zotan, Egangiz
Xudo inoyatli va rahmdildir. Unga qaytsangiz, U sizdan yuzini o‘girmaydi.”

10 Shunday qilib, choparlar to shimoldagi Zabulun hududigacha bo‘lgan Efrayim va
Manashe hududlaridagi hamma shaharlarga kirib chiqdilar. Lekin odamlar
zaharxandalik bilan ularni masxara qildilar. 11 Faqat Osher, Manashe va Zabulun
qabilasidan ba’zilari itoat etib, Quddusga keldilar. 12 Yahudo xalqini esa Xudo
birlashtirib, ularga shoh va a’yonlarning ko‘rsatmasini bajarishga xohish bergan edi. Bu
ko‘rsatma Egamizning amriga asoslangan edi.
13 Ikkinchi oyda Xamirturushsiz non bayramini* nishonlash uchun juda ko‘p xalq
Quddusga yig‘ildi. 14 Ular Quddusdagi hamma begona qurbongohlarni va hamma tutatqi
qurbongohlarini qo‘porib, Qidron soyligiga* uloqtirib tashladilar. 15 Ikkinchi oyning o‘n
to‘rtinchi kuni esa Fisih qo‘zilarini so‘ydilar. O‘zlarini poklamagan ruhoniylar va levilar
uyatli ahvolda qolganidan poklanish marosimini ado etib, kuydiriladigan
qurbonliklarini Egamizning uyiga olib keldilar. 16 So‘ng ular Xudoning odami Musoning
qonuniga muvofiq Ma’badda o‘z joylarini egalladilar. Ruhoniylar levilarning qo‘lidan
qurbonlik qonini olib, qurbongohga sepdilar. 17 Xalqdan ko‘pchiligi o‘zlarini
poklamagani uchun Fisih qo‘zisini qurbon qila olmadilar. Bunday odamlarning Fisih
qo‘zisini so‘yish va Egamizga atash vazifasini levilarning o‘zlari bajardilar. 18 Efrayim,
Manashe, Issaxor va Zabulun qabilasidan kelganlarning aksariyati o‘zlarini poklamagan
bo‘lsalar–da, Xudoning qonuniga zid ravishda Fisih taomidan tanovul qildilar. Lekin
Hizqiyo ular uchun quyidagicha ibodat qildi: “Ey Egam, muruvvating ila bu
bandalaringni kechir. 19 Ular poklanish marosimini ado etmagan bo‘lsalar–da, ey
Egamiz, ular Senga chin yurakdan sajda qilishga qaror etganlar. Axir, Sen ota–
bobolarining Xudosisan.” 20 Hizqiyoning ibodatini Egamiz eshitib, xalqni kechirdi, ularga
zarar yetkazmadi.
21 Quddusda to‘plangan xalq katta xursandchilik bilan yetti kun davomida
Xamirturushsiz non bayramini nishonladi. Levilar va ruhoniylar har kuni sozlarning
baland kuylari jo‘rligida Egamizni madh qildilar. 22 Hizqiyo Egamizga xizmat qilishda
mohirlik ko‘rsatgan hamma levilarni ruhlantirdi. Xullas, xalq tinchlik nazrlarini qurbon
qildi, ota–bobolarining Xudosiga — Egamizga shukronalar aytib, yetti kun bayram
taomini tanovul qildi.

Ikkinchi bayram

23 Butun jamoa bayramni yana yetti kun nishonlashga qaror qildi. Shunday qilib, ular
yana yetti kun xursandchilik bilan bayram qildilar. 24 Yahudo shohi Hizqiyo jamoaga
qurbonlik qilish uchun 1000 ta buqa va 7000 ta qo‘y berdi. Shoh a’yonlari esa 1000 ta
buqa va 10.000 ta qo‘y berdilar. Juda ko‘p ruhoniylar o‘zlarini pokladilar. 25 Yahudo
xalqi, ruhoniylar, levilar, Isroil xalqi, Isroil va Yahudoda istiqomat qilayotgan musofirlar
o‘zlarida yo‘q xursand edilar. 26 Quddusda katta xursandchilik hukm surardi. Isroil shohi

Dovud o‘g‘li Sulaymon zamonidan beri Quddusda bunday voqea yuz bermagan edi.
27 So‘ngra ruhoniylar va levilar turib, xalqni duo qildilar. Ularning ibodati Xudoning
samodagi muqaddas makoniga yetib, ijobat bo‘ldi.

31–BOB

Shoh Hizqiyoning islohotlari

1 Bayram tugagandan keyin, o‘sha yerdagi butun xaloyiq Yahudo, Benyamin, Efrayim
va Manashe hududidagi shaharlarga borib, butsimon toshlarni parchalab tashladilar,
Asheraning* ustunlarini kesdilar, sajdagohlar* va qurbongohlarni vayron qildilar.
Bittasini ham qoldirmadilar. Shundan keyin hammalari o‘z shaharlariga, o‘zlarining
mulkiga qaytdilar.
2 Hizqiyo ruhoniylarni va levilarni guruhlarga bo‘ldi. Har bir guruhga quyidagi
vazifalarni taqsimlab berdi: Egamizning Ma’badi hovlisida kuydiriladigan qurbonliklarni
va tinchlik qurbonliklarini nazr qilish, u yerda xizmat qilib, hamdu sano va madhiyalar
aytish. 3 Egamizning qonuniga ko‘ra, har kuni ertalab va kechqurun, Shabbat kunlari,
yangi oy shodiyonalari va tayinlangan bayram kunlari kuydiriladigan qurbonliklar
keltirilishi lozim edi. Shoh Hizqiyo o‘zining shaxsiy mulkidan bu qurbonliklar uchun
hayvonlarni berdi. 4 U Quddusda yashagan xalqqa: “Ruhoniylar va levilarga tegishli
ulushni beringlar, toki ular o‘zlarini to‘liq Egamizning qonunlarini bajarishga
bag‘ishlasinlar”, deb farmon berdi. 5 Farmon berilgach, xalq bug‘doyning, sharob, zaytun
moyi, asal va dalada yetishtirilgan donlarning birinchi hosilidan mo‘l qilib olib keldilar.
Ular olib kelgan hamma narsaning ushri* nihoyatda mo‘l edi. 6 Yahudo shaharlarida
yashagan Isroil va Yahudo xalqi mol–qo‘ylarining ushrini hamda Egasi Xudoga atab
bag‘ishlangan in’omlarning ushrini olib kelib, uyum–uyum qildilar. 7 Xalq in’omlar olib
kelishni uchinchi oyda* boshlab, yettinchi oyda* tugatdi. 8 Hizqiyo va uning a’yonlari
kelib uyum–uyum in’omlarni ko‘rishgach, Egamizga hamdu sano aytib, Isroil xalqini duo
qilishdi.
9 Hizqiyo ruhoniylar va levilardan bu in’omlar haqida so‘raganda, 10 Zodo‘x
xonadonidan bo‘lgan oliy ruhoniy Ozariyo Hizqiyoga shunday javob berdi: “Xalq
in’omlarni Egamizning uyiga olib kela boshlaganidan beri, ozuqamiz yetarli. Juda ko‘p
ortib qolgani ham bor. Ha, Egamiz O‘z xalqiga baraka berdi, ortganining ko‘pligini bir
ko‘rib qo‘ying.” 11 Shunda Hizqiyoning buyrug‘iga binoan, Egamiz uyining
omborxonalari tayyorlandi. 12 Bu omborxonalarga hamma hadyalar, ushrlar va
bag‘ishlangan in’omlar qo‘yildi. Bularga nazoratchi qilib levi Xonaniyo, uning
yordamchisi qilib ukasi Shimax tayinlandi. 13 Ularning qo‘li ostida quyidagi o‘n nafar levi
ishlaydigan bo‘ldi: Yoxiyol, Ozaziyo, Naxat, Osoyil, Yarimo‘t, Yo‘zabad, Eliyol, Yismaxiyo,
Maxat va Binayo. Bularning hammasi shoh Hizqiyo va oliy ruhoniy Ozariyo tomonidan
tayinlangan edilar.
14 Kori Ma’badning sharqiy darvozasi darvozaboni bo‘lib, Xudoga ko‘ngildan qilingan
nazrlar uchun mas’ul edi. Kori levi Yimnaxning o‘g‘li edi. Uning vazifasi Egamizga
atalgan in’omlarni va eng muqaddas nazrlarni ruhoniylar va levilarga bo‘lib berish edi.
15 Uning sodiq yordamchilari Eden, Minyomin, Yeshuva, Shamayo, Emoriyo va
Shaxaniyo edilar. Ular ruhoniylarga qarashli shaharlarda xizmat qilib, u yerdagi
ruhoniylarning oilalariga guruhlari bo‘yicha ulush taqsimlab berishar edi. Yoshu qariga

bir xil ulush ajratishardi: 16 Egamizning uyidagi xizmatni guruhlari bo‘yicha bajaradigan
hamma erkaklarga, shuningdek, nasabnomada nomlari qayd etilgan uch va undan
yuqori yoshdagi o‘g‘il bolalarga ulush berishardi. 17 Ular xonadonlari bo‘yicha ro‘yxatga
olingan ruhoniylarga, shuningdek, yigirma va undan yuqori yoshdagi levilarga ulush
ajratishardi. Levilarning ro‘yxati bajaradigan vazifalari va guruhlari asosida tuzilgan edi.
18 Nasabnomada nomlari qayd etilgan hamma erkaklarning oilalariga — xotini, o‘g‘il–
qizlari, chaqaloqlariga ham ulush berilardi. Zotan, ular o‘zlarini pok saqlashda sadoqat
ko‘rsatar edilar. 19 Shaharlarning chetlarida istiqomat qilgan, Horun naslidan bo‘lgan
ruhoniylarga kelsak, ularga ham ulush tarqatadigan odamlar tayinlangan edi. Bu
odamlar ruhoniy urug‘idan bo‘lgan har bir erkak zotiga va ro‘yxatga olingan har bir
leviga ulush berishar edi.
20 Shu yo‘sinda, Hizqiyo butun Yahudo bo‘ylab ulush tarqatish vazifasini uddaladi. U
Egasi Xudo oldida yaxshi, to‘g‘ri va halol ishlar qildi. 21 Ma’bad xizmatiga, Xudoning
qonunlari va amrlariga oid qilgan har bir ishini Xudoga intilgan holda, chin yurakdan
qilgani uchun ko‘p muvaffaqiyatga erishdi.

32–BOB

Ossuriyaliklar Quddusga xavf soladi

1 Shoh Hizqiyo sadoqat bilan bajargan bu ishlaridan keyin, Ossuriya shohi Sanxariv*
Yahudoga bostirib keldi. U mustahkam shaharlarni egallab olish maqsadida ularni
qamal qildi. 2 Sanxariv Quddusga hujum qilmoqchi bo‘lganini Hizqiyo bilgach,
3 lashkarboshilari va jangchilariga maslahat soldi. Ular shahar tashqarisidagi buloqlar
oqimini to‘xtatishga qaror qildilar. 4 Bir talay xaloyiq to‘planib: “Nimaga endi Ossuriya
shohi kelib, mo‘l–ko‘l suvga ega bo‘lar ekan”, deya hamma buloqlarni va hududdan oqib
o‘tgan irmoqni to‘xtatdi. 5 Hizqiyo qat’iyat bilan ishga kirishib, buzilgan devorni
qurdirdi, devor ustiga minoralar o‘rnatdi. Shahar devorining tashqarisidan yana bir
devor ko‘tartirdi. Shuningdek, Dovud qal’asining sharq tomonidagi Milloni* tuzattirdi,
ko‘plab qurol–aslaha va qalqonlar yasattirdi. 6 Shahardagi hamma erkaklar ustidan
lashkarboshilar tayinlab, ularni shahar darvozasi oldidagi maydonga to‘pladi.
Hammalariga dalda berib, shunday dedi: 7 “Dadil va botir bo‘linglar, qo‘rqmanglar.
Ossuriya shohi va uning to‘dalari oldida vahimaga tushmanglar, chunki buyuk kuch biz
tomonda, ular tomonda emas. 8 Ular tomonda insoniy qudrat bo‘lsa, biz tomonda Egamiz
Xudodir. U bizga yordam beradi, biz uchun jang qiladi.” Yahudo shohi Hizqiyoning
so‘zlaridan xalq ruhlanib ketdi.
9 Ossuriya shohi Sanxariv jamiki lashkari bilan Laxish shahrini* qamal qilgan paytda,
o‘z a’yonlarini Quddusga — Yahudo shohi Hizqiyo va Quddus aholisi oldiga quyidagi
xabar bilan jo‘natdi:

> 10 “Ossuriya shohi Sanxariv shunday demoqda: sizlar o‘zi nimangizga
> ishonyapsizlar? Nimaga qamalda qolgan Quddusda hanuz o‘tiribsizlar?
> 11 Ossuriya shohi qo‘lidan Egamiz Xudo bizni qutqaradi, deb Hizqiyo sizlarni
> aldamasin. U sizlarni ochligu tashnalikdan halok qilmoqchi! 12 Egangizning
> sajdagohlarini* va qurbongohlarini yo‘q qilgan Hizqiyoning o‘zi emasmi?! U
> Yahudo xalqiga va Qudduslıklarga: «Faqat bitta qurbongoh oldida sajda qilinglar,

yolg‘iz o‘shaning ustida qurbonliklar keltiringlar», deb aytgan ekan*. 13 Nahotki
men va otalarim boshqa yurtlarning xalqlarini nimalar qilganini bilmasangiz?!
O‘sha xalqlarning xudolari qani?! Birortasi o‘z yurtini mening qo‘limdan qutqara
oldimi?! 14 Mening ota–bobolarim yer yuzidan supurib tashlagan qaysi bir
xalqning xudosi o‘z yurtini mening qo‘limdan qutqara olibdiki, Xudoyingiz sizni
qutqara olsa?! 15 Endi Hizqiyoning aldovlariga uchmanglar, u sizlarni yo‘ldan
urmasin. Unga ishonmanglar, biror xalqning yoki shohlikning xudosi o‘z xalqini
mening qo‘limdan yoki otalarimning qo‘lidan qutqara olmagan. Xudoyingiz kim
bo‘libdiki, sizlarni mening qo‘limdan qutqara olsa.”

16 Sanxarivning a’yonlari gapida davom etib, Parvardigor Egamiz va Uning quli
Hizqiyoni haqoratladilar. 17 Shoh Sanxariv yozgan maktubida ham Isroil xalqining
Xudosi — Egamizni tahqirlab, Uni shunday so‘zlar bilan masxara qilgan edi: “Boshqa
yurtlarning xudolari o‘z xalqlarini mening qo‘limdan qutqara olmagani singari,
Hizqiyoning xudosi ham o‘z xalqini mening qo‘limdan qutqara olmaydi.” 18 A’yonlar bu
gaplarini ibroniy tilida devor ustida turgan Quddus xalqiga baqirib aytdilar. Ular
Quddusni qo‘lga kiritish niyatida aholini vahimaga solib, qo‘rqitib qo‘ymoqchi edilar.
19 Quddus Xudosini boshqa xalqlarning xudolari qatorida ko‘rdilar, U to‘g‘rida xuddi
inson qo‘li bilan yaratilgan butlar haqida gapirganday gapirdilar.
20 Shoh Hizqiyo va Omiz o‘g‘li Ishayo payg‘ambar Xudoga iltijo qilib yordam
so‘radilar. 21 Egamiz farishtasini jo‘natgan edi, farishta Ossuriya shohi qarorgohidagi
hamma bahodir jangchilarni, lashkarboshilarni va a’yonlarni qirib tashladi. Sanxariv
sharmandalarcha o‘z yurtiga qaytib ketdi. U o‘z xudosining uyiga kirganda, o‘g‘illarining
ba’zilari unga qilich urib o‘ldirdilar.
22 Shunday qilib, Egamiz shoh Hizqiyoni va Quddus aholisini Ossuriya shohi
Sanxarivning qo‘lidan va butun g‘animlari qo‘lidan qutqardi. Yahudo xalqiga Egamiz har
tarafdan osoyishtalik ato qildi*. 23 Ko‘p odamlar Quddusga tashrif buyurib, Egamizga
nazrlar, Yahudo shohi Hizqiyoga qimmatbaho tortiqlar olib keldilar. O‘sha paytdan
boshlab hamma xalqlar Hizqiyoni yuksak darajada hurmat qiladigan bo‘ldilar.

Shoh Hizqiyoning xastaligi

24 O‘sha kunlari Hizqiyo tuzalmas xastalikka yo‘liqib, o‘lim to‘shagiga yotib qoldi. U
Egamizga ibodat qilgan edi, Egamiz unga javob berib, xastaligidan tuzalishini
tasdiqlaydigan bir alomat ko‘rsatdi. 25 Ammo Hizqiyo noshukurchilik qilib, o‘zini
mag‘rur tutgani uchun o‘z boshiga hamda Yahudo va Quddus ustiga Egamizning
g‘azabini keltirdi. 26 Nihoyat, Hizqiyo va Quddus aholisi yuragidagi mag‘rurligidan tavba
qildi. Shu sababdan Egamiz shoh Hizqiyo davrida xalqqa g‘azabini sochmadi.

Shoh Hizqiyoning boyligi va hashamati

27 Hizqiyo boy–badavlat bo‘lib, yuksak obro‘ga erishdi. U o‘zining kumushlari, oltin,
qimmatbaho toshlari, ziravorlari, qalqonlari va hamma qimmatli buyumlari uchun
xazinalar qurdirdi. 28 Bug‘doy, sharob va zaytun moylari uchun omborxonalar, barcha
turdagi mollari uchun og‘ilxonalar, qo‘ylari uchun qo‘tonlar qurdirdi. 29 Ko‘plab
shaharlar bunyod etib, poda va suruvlarini ko‘paytirdi, chunki Xudo unga behad boylik
bergan edi. 30 Hizqiyo Gixo‘n bulog‘ining yuqori qismini berkitib, qazdirgan quvur orqali
suvni Quddus ichiga olib kirdi*. U hamma ishlarida muvaffaqiyatga erishdi. 31 Biroq

Bobil shahzodalari Yahudo yurtida yuz bergan mo‘jizali alomat to‘g‘risida so‘rash uchun o‘z elchilarini Hizqiyo huzuriga jo‘natganlarida*, Xudo Hizqiyoni o‘z holiga qo‘yib qo‘ygandi. Xudo Hizqiyoni sinab, uning dilidagi asl niyatlarini bilmoqchi edi.

32 Hizqiyoning boshqa ishlari, qilgan yaxshiliklari “Yahudo va Isroil shohlari kitobi”dagi “Omiz o‘g‘li Ishayo payg‘ambarning vahiysi”da yozilgan. 33 Hizqiyo olamdan o‘tib, Dovud nasli xilxonasining to‘riga dafn qilindi*. Hizqiyo vafot etganda, butun Yahudo xalqi va Quddus aholisi unga izzat–hurmat ko‘rsatdi. Uning o‘rniga o‘g‘li Manashe shoh bo‘ldi.

33–BOB

Yahudo shohi Manashe

1 Manashe o‘n ikki yoshida shoh bo‘lib, Quddusda ellik besh yil hukmronlik qildi. 2 U Egamiz oldida qabih ishlar qildi. Egamiz O‘z xalqi Isroilning oldidan quvib yuborgan xalqlarning jirkanch odatlariga ergashdi. 3 Otasi Hizqiyo buzib tashlagan sajdagohlarni* qaytadan barpo etdi, Baalga atab qurbongohlar qurdi, Asheraga* atab ustunlar o‘rnatdi. Barcha samoviy jismlarga sajda etib xizmat qildi. 4 Manashe Egamizning to abad ulug‘lanishi kerak bo‘lgan uyida begona xudolarga atab, qurbongohlar qurdi. 5 Egamiz uyining ikkala hovlisida ham jamiki samoviy jismlarga sajda qilish uchun qurbongohlar barpo qildirdi. 6 O‘g‘illarini Xinnum soyligida* qurbonlik qilib, olovda kuydirdi*, follar ochtirdi, ta’birchilarga e’tiqod qildi, sehr–jodu bilan shug‘ullandi, arvoh chaqiruvchilarga maslahat soldi. Egamiz oldida ko‘p qabih ishlar qilib, Uni g‘azablantirdi. 7 O‘zi yasattirgan butni Xudoning uyiga o‘rnatdi. Xudo bu uy to‘g‘risida Dovud bilan uning o‘g‘li Sulaymonga shunday degan edi*: “Men bu uyni va Quddusni Isroil qavmlari yashaydigan maskanlar orasidan tanlab olganman. Men to abad o‘sha yerda ulug‘lanaman. 8 Ular amrlarimni bitta qoldirmay bajarsalar, qulim Muso orqali bergan qonun–qoida va talablarimga rioya qilsalar, Isroil xalqining ota–bobolariga Men bergan yerdan haydalishlariga yo‘l qo‘ymayman.” 9 Manashe Yahudo xalqini va Quddus ahlini shu qadar yo‘ldan ozdirdiki, ular Kan’on yurtidan Egamiz yo‘qotib yuborgan xalqlardan ham ko‘ra, ko‘proq qabih ishlar qildilar.

Shoh Manashe tavba qiladi

10 Egamiz shoh Manasheni va uning xalqini ogohlantirdi, lekin ular quloq solmadilar. 11 Shuning uchun Egamiz ularga qarshi Ossuriya lashkarboshilarini jo‘natdi. Ular Manasheni asirga oldilar, burnidan halqa o‘tkazib, uni zanjirband qildilar va Bobilga olib keldilar. 12 U kulfatda qolgach, Egasi Xudodan shafqat so‘rab iltijo qildi, ota–bobolarining Xudosiga bo‘yin egdi. 13 Iltijo qilganda, Xudo Manashening iltijosini qabul qildi, uni yana Quddusga — o‘z shohligiga qaytardi. Shunda Manashe, Egamiz haqiqatan ham Xudo ekanligini bildi.

14 Shundan keyin Manashe Dovud qal’asining sharq tomonidagi tashqi devorini tuzatib, uni baland qilib ko‘tartirdi. Bu devor Qidron soyligidagi Gixo‘n bulog‘idan to shimoldagi Baliq darvozasigacha va shahardagi Ofel tepaligining* atrofi bo‘ylab qurilgan edi. Manashe Yahudoning hamma mustahkam shaharlariga lashkarboshilar tayinladi. 15 Egamizning uyidan begona xudolarning tasvirlarini va o‘zi o‘rnatgan butni olib tashladi, Egamizning uyi turgan tog‘da va Quddusning boshqa joylarida o‘zi qurdirgan qurbongohlarni buzdirib, shahar tashqarisiga chiqartirdi. 16 So‘ng Egamizning

qurbongohini qaytadan qurdirib, qurbongoh ustida tinchlik qurbonliklari va shukrona qurbonliklarini atadi. Yahudo xalqiga: “Isroil xalqining Xudosi — Egamizga sajda qilinglar”, deb farmon berdi. 17 Xalq boshqa sajdagohlarda qurbonlik qilishda davom etdi. Ammo qilgan barcha qurbonliklarini ular Egasi Xudoga atar edilar.

Manashe hukmronligining so‘nggi davrlari

18 Manashening boshqa ishlari, Xudoga qilgan ibodati, Isroil xalqining Xudosi — Egamiz nomidan valiylar unga bergan xabarlar “Isroil shohlari tarixi” kitobida yozilgan. 19 Uning iltijosi va Xudoning bergan javobi, tavba qilmasdan oldin qilgan hamma gunohlari va Xudoga qilgan xiyonati, qurdirgan sajdagohlari, sig‘ingan butlari va Asheraning ustunlari to‘g‘risida valiylar kitobida* yozilgan. 20 Manashe olamdan o‘tib, o‘z uyida dafn qilindi. O‘rniga o‘g‘li Omon shoh bo‘ldi.

Yahudo shohi Omon

21 Omon shoh bo‘lganda, yigirma ikki yoshda edi. U Quddusda ikki yil hukmronlik qildi. 22 Omon ham, otasi Manashe kabi, Egamiz oldida qabih ishlar qildi. Otasi Manashe yasattirgan hamma butlarga qurbonlik qilib, xizmat etdi. 23 Otasi Manashe Egamizga bo‘yin eggan bo‘lsa, Omon Egamizga bo‘yin egmadi, otasidan ham ko‘proq gunoh orttirdi.

24 Omonning a’yonlari fitna uyushtirib, uni o‘z saroyida o‘ldirdilar. 25 Yahudo xalqi o‘z shohi Omonga fitna uyushtirganlarning hammasini o‘ldirib, o‘rniga o‘g‘li Yo‘shiyoni shoh qilib ko‘tardi.

34–BOB

Yahudo shohi Yo‘shiyo

1 Yo‘shiyo sakkiz yoshida shoh bo‘lib, Quddusda o‘ttiz bir yil hukmronlik qildi. 2 U Egamiz oldida to‘g‘ri ishlar qildi. O‘ngga ham, chapga ham og‘masdan, bobosi Dovudning yo‘lidan yurdi. 3 Hukmronligining sakkizinchi yilida, yoshligidan bobosi Dovudning Xudosiga intila boshladi. Hukmronligining o‘n ikkinchi yilida esa Yahudo va Quddusni sajdagohlardan*, Asheraning* ustunlaridan, o‘yma va quyma butlardan tozalay boshladi. 4 Uning ko‘rsatmasi bilan Baalning qurbongohlari buzdirildi, bu qurbongohlarning yonidagi tutatqi qurbongohlari ham sindirib tashlandi. Asheraning ustunlari, shuningdek, o‘yma va quyma butlar parchalanib, bo‘laklari o‘sha butlarga qurbonlik qilganlarning qabrlari ustiga sochib tashlandi. 5 Yo‘shiyo butparast ruhoniylarning suyaklarini o‘zlari sajda qilgan qurbongohlar ustida yoqdi. Shunday qilib, u Yahudo va Quddusni pokladi. 6 Shimoldagi Naftali hududigacha bo‘lgan Manashe, Efrayim va Shimo‘n shaharlaridagi va ularning atrofida bo‘lgan vayronalardagi 7 qurbongohlarni sindirdi, Asheraga atalgan ustunlarni kesdi, butlarni parchalab tashladi. Isroil yurti bo‘ylab hamma tutatqi qurbongohlarini buzdi. Shundan keyin Quddusga qaytib ketdi.

Qonun kitobi topiladi

8 Yo‘shiyo yurtni va Egamizning uyini poklagandan keyin, hukmronligining o‘n sakkizinchi yilida Ozaliyo o‘g‘li Shofonni, Quddus hokimi Masiyoni va mushovir Yo‘xoz o‘g‘li Yo‘xni Egasi Xudoning uyini tuzatishga yubordi. 9 Ular oliy ruhoniy Xilqiyoning oldiga kelib, Xudoning uyiga keltirilgan kumushni unga topshirdilar. Levi darvozabonlari bu kumushni Manashe, Efrayim va Isroil xalqining omon qolganlaridan,

shuningdek, Yahudo, Benyamin qabilalaridan va Quddus aholisidan to‘plab olgan edilar.
10 Ular kumushni Egamizning uyida mehnat qilayotgan ishboshilarga topshirdilar.
Ishboshilar esa kumushni olib, Egamizning uyidagi buzilgan joylarni ta’mirlayotgan
ustalarga to‘ladilar. 11 Qolganini esa duradgor va binokorlarga berdilar. Ular bu
kumushga Yahudo shohlari qarovsiz qoldirgan xarob binolarni tuzatish uchun tosh va
yog‘ochlarni sotib oldilar.
12 Ishchilar sidqidildan mehnat qildilar. Ularga nazoratchi qilib Marori naslidan
levilar Yaxat va Obodiyo tayinlandi, Qohot urug‘idan esa levilar Zakariyo va Mashullom
tayinlandi. Musiqa asboblarini chaladigan hamma levilar 13 yuk tashuvchilarga hamda
turli xizmatdagi ishchilarga mas’ul edilar. Levilarning ba’zilari esa kotib, ma’mur va
darvozabon edilar.
14 Egamizning uyidagi kumush olib chiqilayotganda, ruhoniy Xilqiyo Egamizning
Muso orqali bergan Tavrot kitobini topib oldi. 15 U kotib Shofonga:
— Egamizning uyidan Tavrot kitobini topib oldim, — deb kitobni Shofonga berdi.
16 Shofon esa kitobni shohga olib borib, hisobot berdi: “Qullaringiz topshirilgan hamma
ishlarni bajaryaptilar. 17 Ular Egamizning uyidagi bor kumushni o‘sha yerdagi
ishboshilarga va ishchilarga berdilar.” 18 So‘ng: “Ruhoniy Xilqiyo mana bu kitobni menga
berdi”, — deya qo‘shimcha qilgach, Tavrot kitobini shohga ovoz chiqarib o‘qib berdi.
19 Shoh Tavrot so‘zlarini eshitgach, vahimaga tushganidan kiyimlarini yirtdi. 20 Keyin
ruhoniy Xilqiyoga, Shofon o‘g‘li Oxixamga, Mixiyo* o‘g‘li Axborga*, kotib Shofonga va
o‘zining mulozimi Osoyohga shunday farmon berdi:
21 — Boringlar, topilgan bu kitobdagi so‘zlarga muvofiq, men to‘g‘rimda ham, Isroil
va Yahudo xalqlarining omon qolganlari to‘g‘risida ham Egamizning xohish–irodasini
so‘ranglar. Otalarimiz bu kitobdagi so‘zlarga quloq solmaganlari uchun, Egamizning
amrlariga rioya qilmaganlari uchun Egamizning dahshatli g‘azabi bizning ustimizga
yog‘ildi.
22 Ruhoniy Xilqiyo va shoh jo‘natgan odamlar Xulda ismli payg‘ambar ayol huzuriga
borib, unga maslahat soldilar. Xulda payg‘ambar Egamizning uyidagi muqaddas liboslar
posboni Shallumning xotini edi. Shallum Tixvoning* o‘g‘li, Xarxasning* nabirasi edi.
Xulda Quddusning yangi dahasida yashardi. 23 Xulda ularga shunday dedi:

> “Isroil xalqining Xudosi — Egamiz demoqda: sizlarni Mening huzurimga
> yuborgan odamga shu gaplarimni aytinglar: 24 «Men bu yurtga ham, bu yurtda
> yashayotgan xalqqa ham falokat keltiraman. Yahudo shohi huzurida o‘qilgan
> kitobdagi hamma la’natlarni ularga yog‘diraman. 25 Ular Mendan yuz o‘girganlari
> uchun, boshqa xudolarga qurbonliklar keltirib, o‘z qo‘llari bilan yasagan butlari
> tufayli* qahrimni keltirganlari uchun bu yurtga g‘azabim yog‘iladi va aslo
> bosilmaydi.»
> 26 Egamizning xohish–irodasini bilish uchun sizlarni yuborgan Yahudo
> shohiga shu xabarni beringlar: Isroil xalqining Xudosi — Egamiz sen eshitgan
> so‘zlaring to‘g‘risida shuni aytmoqda: 27 «Sen bu yurtga va yurtning xalqiga
> qarshi aytgan so‘zlarimni eshitganingdan keyin, yuraging yumshadi, Menga
> bo‘yin egding. Sen Menga bo‘yin egganing uchun, qayg‘udan liboslaringni yirtib,
> huzurimda yig‘laganing uchun Men iltijolaringni eshitdim. 28 Shunga ko‘ra, sen
> ota–bobolaring yoniga xotirjam ketasan, o‘z qabringga dafn etilasan. Bu yurtga

va uning ahliga Men keltiradigan jamiki falokatlarni sen koʻrmaysan.»”

Xilqiyo va uning hamrohlari bu xabarni shohga yetkazdilar.

Shoh Yoʻshiyoning ahdi

29 Shoh Yoʻshiyo xabar berib, Yahudo va Quddusning hamma oqsoqollarini oʻz
huzuriga toʻpladi. 30 Jamiki Yahudo xalqi va Quddus aholisi, ruhoniylar, levilar,
zodagonlaru avom xalq shoh boshchiligida Egamizning uyiga bordi. Shoh Egamizning
uyidan topilgan Tavrot kitobini* boshidan oxirigacha ularning oldida oʻqidi. 31 Shoh
Egamizning uyi eshigi oldidagi oʻz joyida turib: “Egamiz koʻrsatgan yoʻldan yuraman,
amrlariga itoat etaman, shartlariga, farmonlariga butun qalbim bilan, jonu dilim bilan
quloq solaman, bu kitobda yozilgan ahd soʻzlarini ado etaman”, deb Egamiz bilan qayta
ahd qildi. 32 Soʻngra u Benyamin qabilasiga va Quddusdagi hamma odamlarga bu ahdga
rioya qilish toʻgʻrisida farmon berdi. Oʻsha kundan boshlab Quddus aholisi ota–
bobolarining Xudosi bilan qilgan ahd talablarini bajara boshladilar. 33 Yoʻshiyo Isroil
xalqiga qarashli hamma hududlardan makruh butlarni yoʻqotdi. Isroil xalqining
hammasini Egasi Xudoga sajda qildirdi. Uning davrida xalq ota–bobolarining Xudosi —
Egamizdan yuz oʻgirmay, Unga xizmat qildi.

35–BOB

Shoh Yoʻshiyo Fisih ziyofati va Xamirturushsiz non bayramini nishonlaydi

1 Shoh Yoʻshiyo Quddusda Egamizning sharafiga Fisih ziyofatini* nishonladi. Birinchi
oyning* oʻn toʻrtinchi kuni Fisih qoʻzilari qurbonlik qilindi. 2 Yoʻshiyo ruhoniylarni
xizmatga tayinlab, Egamizning uyidagi xizmatga ularni ragʻbatlantirdi. 3 Soʻng Egamizga
bagʻishlangan va xalqqa ta’lim bergan levilarga dedi:

— Muqaddas Sandiqni Isroil shohi Dovud oʻgʻli Sulaymon qurgan Egamizning uyiga
olib kiringlar. Sandiqni bundan buyon yelkangizda koʻtarib yurishga hojat yoʻq. Endi
Egangiz Xudoga va Uning xalqi Isroilga xizmat qilinglar. 4 Shoh Dovudning va oʻgʻli
Sulaymonning yozib qoldirgan koʻrsatmalariga muvofiq*, xonadoningiz va guruhlaringiz
boʻyicha xizmatga tayyorlaninglar. 5 Muqaddas maskanga shunday tartibda
joylashinglarki, Isroil xalqining birorta xonadoni e’tiboringizdan chetda qolib ketmasin.
6 Fisih qoʻzisini soʻyib, oʻzingizni poklanglar. Soʻng yurtdoshlaringiz uchun Fisih
qoʻzilarini tayyorlab beringlar. Xullas, Egamizning Muso orqali bergan koʻrsatmalariga
rioya qilinglar.

7 Shoh Yoʻshiyo bu yerda hozir boʻlgan xalqqa Fisih qurbonliklari uchun 30.000 ta
qoʻzi va uloqchani, 3000 ta buqani berdi. Bularning hammasi shohning shaxsiy
mulkidan edi. 8 Shohning a’yonlari ham xalqqa, ruhoniy va levilarga qurbonliklar uchun
koʻngildan chiqarib hayvonlarni berdilar. Xudoning uyida xizmat qiluvchilarning
boshliqlari Xilqiyo, Zakariyo va Yoxiyol ruhoniylarga Fisih qurbonliklari uchun 2600 ta
qoʻzi bilan uloqcha va 300 ta buqa berdilar. 9 Xonaniyo, uning ukalari Shamayo va
Natanil, levilarning yoʻlboshchilari Xashaviyo, Yaviyol va Yoʻzabad Fisih qurbonliklari
uchun levilarga 5000 ta qoʻzi bilan uloqcha va 500 ta buqa berdilar.

10 Fisih marosimiga oid tayyorgarliklar tugagach, ruhoniylar bilan levilar shohning
buyrugʻiga binoan oʻz joylarini egalladilar. 11 Levilar Fisih qoʻzilarini boʻgʻizlab, qonini
ruhoniylarga berdilar. Ruhoniylar qonni qurbongohga sepdilar. Levilar esa qoʻzilarning

terisini shilishga kirishdilar. 12 Ular so‘yilgan qo‘zi, uloqcha va buqalarning qurbongohda kuydiriladigan qismlarini ajratib qo‘ydilar. So‘ng bularni odamlarga xonadonlari bo‘yicha taqsimlab berdilar. Toki har bir xonadon o‘ziga tegishli qurbonligini Egamizga bag‘ishlab, Musoning qonunidagi ko‘rsatmalarga binoan keltirsin. 13 Levilar qonun–qoidaga muvofiq, Fisih qo‘zilarini olovda pishirdilar, muqaddas qurbonliklar go‘shtini esa tog‘oralarda, qozonlarda va tovalarda qaynatdilar. Go‘sht tayyor bo‘lgach, uni darrov xalqning oldiga dasturxonga tortdilar. 14 Shundan so‘nggina levilar o‘zlari uchun va ruhoniylar uchun Fisih taomini tayyorlashga kirishdilar. Negaki, Horun naslidan bo‘lgan ruhoniylarning qo‘li kechgacha bo‘shamadi, ular kuydiriladigan qurbonliklarni va yog‘larni kuydirish bilan ovora edilar. 15 Osif naslidan bo‘lgan qo‘shiqchilar shoh Dovudning, Osif, Xaman va shohning valiysi Yodutunning ko‘rsatmasiga binoan o‘z joylarida turdilar. Ma’bad darvozabonlari ham o‘z joylaridan siljimadilar. Levi birodarlari ularga Fisih taomini tayyorlaganlari uchun xizmatlarini to‘xtatishga zarurat bo‘lmadi.

16 Shunday qilib, o‘sha kuni shoh Yo‘shiyoning farmoniga ko‘ra, Egamizga bag‘ishlangan hamma xizmatlar bajarildi. Fisih ziyofati nishonlanib, Egamizning qurbongohida kuydiriladigan qurbonliklar keltirildi. 17 Isroil xalqi Fisih ziyofatini va yetti kun davomida Xamirturushsiz non bayramini nishonladi. 18 Shomuil payg‘ambar davridan buyon Isroilda Fisih ziyofati bu singari nishonlanmagan edi. Isroil shohlaridan birortasi, Yo‘shiyo singari Fisih ziyofatini ruhoniylar, levilar, jamiki Yahudo va Isroil xalqi hamda Quddus aholisi ishtirokida nishonlamagan edi. 19 Bu Fisih ziyofati shoh Yo‘shiyo hukmronligining o‘n sakkizinchi yilida nishonlandi.

Yo‘shiyo hukmronligining so‘nggi davri

20 Bu voqealardan so‘ng, Yo‘shiyo Ma’badni tartibga solib bo‘lgach, Misr shohi Nexo jang qilgani Furot daryosi bo‘yidagi Karxamish shahriga lashkarini boshlab keldi. Yo‘shiyo unga qarshi otlandi*. 21 Lekin Nexo Yo‘shiyoga elchilar orqali shunday xabar yubordi:

> “Ey Yahudo shohi! Sen bu jangga aralashma! Men senga emas, o‘z dushmanlarimga qarshi urushga otlandim. Xudo menga, shoshil, deb amr berdi. Xudo men tomonda, Unga qarshilik ko‘rsatishni bas qil, aks holda, nobud bo‘lasan.”

22 Ammo Yo‘shiyo jang qilishdan qaytmadi. Xudoning Nexo orqali aytgan so‘zlariga quloq solmadi. Shohona kiyimlarini o‘zgartirib, Magido‘* tekisligida jangga kirdi. 23 Jang paytida Misr kamonkashlari shoh Yo‘shiyoga o‘q otdilar. Shunda shoh a’yonlariga: “Meni bu yerdan olib chiqinglar, og‘ir yaralandim”, dedi. 24 A’yonlar Yo‘shiyoni jang aravasidan olib, boshqa jang aravasiga soldilar–da, Quddusga olib keldilar. Yo‘shiyo shu yerda vafot etdi. U ota–bobolarining xilxonasiga dafn qilindi. Butun Yahudo va Quddus aholisi Yo‘shiyo uchun aza tutdi. 25 Yeremiyo payg‘ambar shoh Yo‘shiyoga atab marsiya aytdi. Shu kunga qadar* erkak va ayol qo‘shiqchilar Yo‘shiyoni xotirlaganlarida shu marsiyani aytishadi, bu Isroilda odat bo‘lib qoldi. Bu marsiya qo‘shig‘i “Marsiyalar to‘plami”ga kiritilgan.

26 Yo‘shiyoning boshqa ishlari, Egamizga sodiqligi, Uning qonuniga binoan olib borgan faoliyati, 27 hayotidagi barcha voqealar, boshdan oxirigacha “Isroil va Yahudo

shohlari kitobi”da yozilgan.

36–BOB

Yahudo shohi Yohuxoz

1 Yahudo xalqi Yo‘shiyoning o‘g‘li Yohuxozni otasining o‘rniga shoh qilib ko‘tardi.
2 Yohuxoz yigirma uch yoshida taxtga o‘tirib, Quddusda uch oy shohlik qildi. 3 So‘ngra
Misr shohi Nexo uni Quddus taxtidan tushirib, yurt xalqidan 200 pud* kumush va 2
pud* oltin o‘lpon talab qildi. 4 Misr shohi Yohuxozning ukasi Eliyaqimni Yahudo va
Quddusga shoh qilib tayinladi. Uning ismini o‘zgartirib Yohayiqim qo‘ydi. Akasi
Yohuxozni esa Misrga olib ketdi.

Yahudo shohi Yohayiqim

5 Yohayiqim yigirma besh yoshida shoh bo‘lib, Quddusda o‘n bir yil hukmronlik qildi.
U Egasi Xudoning oldida qabih ishlar qildi. 6 Bobil shohi Navuxadnazar* Yahudoga
hujum qildi. U Yohayiqimni Bobilga olib ketish niyatida zanjirband qildi*. 7 Egamizning
uyidagi bir qancha idishlarni Bobilga olib ketib, ularni Bobildagi saroyiga* qo‘ydi.
8 Yohayiqimning boshqa ishlari, uning qilgan jirkanch qilmishlari, hamma
kamchiliklari “Isroil va Yahudo shohlari kitobi”da yozilgan. Uning o‘rniga o‘g‘li
Yohayixin shoh bo‘ldi.

Yahudo shohi Yohayixin

9 Yohayixin o‘n sakkiz* yoshida shoh bo‘lib, Quddusda uch oy va o‘n kun hukmronlik
qildi. U Egamizning oldida qabih ishlar qildi. 10 O‘sha yili bahorda shoh Navuxadnazar
Yohayixinni hibsga olib, Bobilga olib ketdi. U bilan birga Egamizning uyidagi
qimmatbaho idishlarni ham olib ketdi. Yohayixinning o‘rniga amakisi* Zidqiyoni Yahudo
va Quddus ustidan shoh qilib tayinladi.

Yahudo shohi Zidqiyo

11 Zidqiyo yigirma bir yoshida shoh bo‘lib, Quddusda o‘n bir yil hukmronlik qildi. 12 U
Egasi Xudoning oldida qabih ishlar qildi. Egamizning so‘zlarini ayon qilgan Yeremiyo
payg‘ambarga bo‘yin egmadi.

Quddus qulaydi

13 Shoh Navuxadnazar Zidqiyoga Xudoning nomi bilan sadoqat ontini ichdirgan
bo‘lsa ham, Zidqiyo Navuxadnazarga qarshi isyon ko‘tardi. U qaysarlik qilib, Isroil
xalqining Xudosiga — Egamizga tavba qilishdan bosh tortdi. 14 Bosh ruhoniylarning
hammasi omma qatorida o‘zga xalqlarning jirkanch odatlariga taqlid qilib, Xudoga o‘ta
bevafo bo‘ldilar. Shu yo‘sin, ular Egamizning O‘zi muqaddas qilgan Quddusdagi uyni
bulg‘adilar. 15 Ota–bobolarining Xudosi — Egamiz O‘z xalqi va maskaniga rahm qilib,
ularning oldiga qayta–qayta payg‘ambarlarini jo‘natdi. 16 Lekin ular Xudoning elchilarini
haqorat qilib, Xudoning so‘zlaridan nafratlandilar, payg‘ambarlarni masxara qildilar.
Oxiri Egamiz O‘z xalqidan shu qadar g‘azablandiki, ular najotsiz qoldilar.
17 Egamiz ularga qarshi Bobil* shohini tortib keldi. Bobil shohi Ma’badda ularning
yoshlarini qilichdan o‘tkazdi, na yosh erkakka, na ayolga, na keksaga, na xastaga shafqat
qildi. Xudo Yahudo xalqining hammasini Bobil shohining qo‘liga bergan edi. 18 Bobil
shohi Xudoning uyidagi kattayu kichik buyumlarni, jamiki xazinani, shoh va uning

a’yonlari xazinalarini, xullas, hamma narsani Bobilga olib ketdi. 19 Xudoning uyiga esa o‘t
qo‘ydi, Quddus devorini buzib tashladi, barcha hashamatli binolarni yondirdi,
Quddusdagi hamma qimmatbaho ashyolarni yo‘q qilib tashladi. 20 Qilichdan omon
qolganlarini esa Bobilga surgun qildi. Fors shohligi qaror topgunga qadar Yahudo xalqi
Bobil shohiga va uning avlodlariga qul bo‘lib qoldi. 21 Yurt bo‘m–bo‘sh cho‘lga aylandi.
Yerga dam berilmagan yillarning* soni to‘lguncha, yetmish yil davomida tashlandiq
bo‘lib yotdi. Shunday qilib, Egamizning Yeremiyo payg‘ambar orqali aytgan so‘zlari*
amalga oshdi.

Shoh Kurush Yahudo xalqiga ozodlik beradi

22 Fors shohi Kurush hukmronligining birinchi yilida* Egamizning Yeremiyo orqali
bildirgan so‘zlari* bajo bo‘lishi uchun, Egamiz shoh Kurushning yuragiga Quddusdagi
Ma’badni qayta qurish istagini soldi. Shunday qilib, Kurush o‘z shohligining hamma
tomoniga xabarchilar jo‘natdi va yozma farmonda quyidagilarni e’lon qildi:

> 23 “Fors shohi Kurush shunday demoqda: Samoviy Xudo — Egamiz yer
> yuzidagi jamiki shohliklarni menga bergan. U Yahudo yurtidagi Quddusda O‘ziga
> bir uy qurishni menga topshirdi. Xudoning xalqidan bo‘lgan har bir kimsa
> Quddusga borsin, Egasi Xudo unga yor bo‘lsin.”

IZOHLAR

Fors shohi Kurush — Kir ismi bilan ham tanilgan bo‘lib, miloddan oldingi 539-530 yillarda Bobilda hukmronlik qilgan.

1:3 *Givondagi sajdagoh* — Quddusdan qariyb 6 kilometr shimoli–g‘arbda joylashgan.

1:3 *Uchrashuv chodiri* — Muqaddas chodirning yana bir nomi.

1:4 *Xudoning Ahd sandig‘i…Quddusga olib kelingan edi…* — 1 Solnomalar 13:5-14, 15:25-16:1 ga qarang.

1:14 *ot* — bu o‘rindagi ibroniycha so‘z *aravakash* ma’nosini ham ifodalashi mumkin.

1:15 *shikamora–anjir daraxti* — anjirning qadimgi Yaqin Sharqda keng tarqalgan bir turi. Kattaligi yong‘oq daraxtiday, barglari esa tut barglariga o‘xshash bo‘lib, yil davomida bir necha bor hosil beradigan sersoya daraxt.

1:16 *Misr* — yoki Quvega yondosh bo‘lgan *Muzur* nomli hudud bo‘lishi mumkin (shu bobning 17–oyatida ham bor). Muzur va Quve hududlari hozirgi Turkiyaning janubi–g‘arbida joylashgan bo‘lib, shoh Sulaymon davrida yilqichilik markazi edi.

1:17 *600 kumush tanga* — ibroniycha matnda *600 shaqal kumush*, taxminan 7 kiloga to‘g‘ri keladi.

1:17 *150 kumush tanga* — ibroniycha matnda *150 shaqal kumush*, taxminan 1,7 kiloga to‘g‘ri keladi.

2:3 *Tir* — Finikiyada muhim ahamiyatga ega bo‘lgan shahar. Bu shahar Isroildan shimolda, O‘rta yer dengizi bo‘yida joylashgan edi. Bugungi kunda bu yer Livan mamlakatining janubiy qismini tashkil qiladi.

2:10 *200.000 tog‘ora* — ibroniycha matnda *20.000 kor*, taxminan 4400 tonnaga to‘g‘ri keladi.

2:10 *40.000 ko‘za* — ibroniycha matnda *20.000 bat*, taxminan 440.000 litrga to‘g‘ri keladi.

2:16 *Yaffa* — O‘rta yer dengizi bo‘yida joylashgan bo‘lib, Quddus uchun bandargoh vazifasini o‘tagan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi BANDARGOH so‘ziga qarang.

3:1 *Aravno* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *O‘rnan*. Uning Aravno degan shakli 2 Shohlar 24:16 dan olingan.

3:2 *Sulaymon hukmronligining to‘rtinchi yili ikkinchi oyi* — taxminan miloddan oldingi 960 yilning ikkinchi oyi. Ibroniy kalendarining Ziv oyi nazarda tutilgan. Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan aprelning o‘rtasidan boshlanadi.

3:3 *tirsak* — bir tirsak taxminan 45 santimetrga to‘g‘ri keladi.

3:4 *20 tirsak* — qadimiy suryoniycha tarjimadan, qadimiy yunoncha tarjimaning ba’zi qo‘lyozmalaridan. Ibroniycha matnda *120 tirsak*.

3:7 *karublar* — qanotli samoviy mavjudotlar. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi KARUB, KARUBLAR so‘ziga qarang.

3:8 *1300 pud* — ibroniycha matnda *600 talant*, taxminan 21 tonnaga to‘g‘ri keladi.

3:9 *125 misqol* — ibroniycha matnda *50 shaqal*, taxminan 550 grammga to‘g‘ri keladi.

3:14 *ichki parda* — Muqaddas xonani Eng muqaddas xonadan ajratib turar edi (Chiqish 26:31-33 ga qarang).

3:15 *18 tirsak* — qadimiy suryoniycha tarjimadan (yana 3 Shohlar 7:15, 4 Shohlar 25:17, Yeremiyo 52:21 ga qarang). Ibroniycha matnda *35 tirsak*, ikkala ustunning umumiy balandligi nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin.

3:16 *anor* — qadimgi paytlarda hayot ramzi edi.

3:17 *Yoxin* — bu nom ibroniychadagi *U* (ya’ni Xudo) *asos solgan* iborasiga ohangdosh.

3:17 *Bo‘az* — bu nom ibroniychadagi *Uning* (ya’ni Xudoning) *kuchi vositasida* iborasiga ohangdosh.

4:1 *tirsak* — bir tirsak taxminan 45 santimetrga to‘g‘ri keladi.

4:5 *6000 ko‘za* — ibroniycha matnda *3000 bat*, taxminan 66.000 litrga to‘g‘ri keladi.

4:13 *anor* — qadimgi paytlarda hayot ramzi edi.

4:17 *Zoraton* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Zarido*. Uning Zoraton degan shakli 3 Shohlar 7:46 dan olingan.

4:19 *muqaddas nonlar* — bu nonlar Ma’badda Egamizning huzurini aks ettiruvchi timsol bo‘lib, Xudo Isroil xalqining qudrati va ta’minlovchisi ekanligidan darak berib turgan. Nonlar Ma’baddagi maxsus xontaxtaga qo‘yilib, har Shabbat kuni yangi pishirilgan nonlar bilan almashtirib turilgan (Levilar 24:5-9 ga qarang).

5:2 *…Dovud qal’asidan…* — 1 Solnomalar 15:25-16:1 ga qarang.

5:3 *yettinchi oy* — ibroniy kalendarining Tishri oyi nazarda tutilgan (Tishri oyi Itanim oyi deb ham ataladi). Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan sentabrning o‘rtasidan boshlanadi.

5:3 *Chayla bayrami* — bu bayram kuzda yig‘im–terim tugagan paytga to‘g‘ri keladi.

5:5 *Uchrashuv chodiri* — Muqaddas chodirning yana bir nomi. O‘sha davrda Uchrashuv chodiri Quddusdan qariyb 6 kilometr shimoli–g‘arbda — Givonda joylashgan edi (1:3 ga qarang). Ahd sandig‘i esa Quddus shahrida, Dovud tomonidan o‘rnatilgan maxsus chodirda saqlanar edi (1:4 ga qarang).

5:9 *…bugungacha…* — shu kitob yozilgan vaqtga ishora.

5:10 *Sinay tog‘i* — ibroniycha matnda *Xorev tog‘i*, Sinay tog‘ining yana bir nomi.

6:5 *Egamiz otamga shunday degan edi…* — 1 Solnomalar 17:1-14 ga qarang.

6:13 *…uzunligi besh tirsak, eni ham besh tirsak, balandligi uch tirsak…* — uzunligi va eni taxminan 2,3 metrga, balandligi taxminan 1,4 metrga to‘g‘ri keladi.

6:28 *garmsel* — hosilga katta ziyon keltiradigan issiq shamol.

6:28 *chigirtka* — ba’zan to‘da–to‘da bo‘lib kelib, dalalardagi hosilga katta zarar yetkazadigan hasharot.

7:8 *Levo–Xomat* — yoki *Xomat dovoni*.

7:8 *Misr chegarasidagi irmoq* — Sinay yarim orolining shimoli–sharqidagi Arish soyligi yoki Nil daryosining sharqiy irmog‘i nazarda tutilgan (yana Ibtido 15:18, Sahroda 34:5

va Yoshua 13:3, 15:4, 47 ga qarang).

7:8 *Chayla bayrami* — 5:3 ning ikkinchi izohiga qarang.

7:9 *Chayla bayramidan keyin…* — ibroniycha matnda *Sakkizinchi kunida…*, Chayla bayramining yettinchi kunidan keyingi birinchi kun.

7:10 *Yettinchi oy* — 5:3 ning birinchi izohiga qarang.

7:13 *chigirtkalar* — 6:28 ning ikkinchi izohiga qarang.

7:18 *unga…aytgan gaplarim* — 2 Shohlar 7:12-16 ga qarang.

8:3 *Xomat–Zo‘vo* — yoki *Xomat va Zo‘vo* (1 Solnomalar 18:9-10 ga qarang), bu yurtlar Damashqdan shimolda joylashgan edi.

8:6 *otliqlar* — bu o‘rindagi ibroniycha so‘z *otlar* ma’nosini ham ifodalashi mumkin.

8:8 *…bugungacha…* — shu kitob yozilgan vaqtga ishora.

8:13 *Hosil bayrami* — ibroniycha matnda *Haftalar bayrami*, Hosil bayramining yana bir nomi.

8:17 *Qizil dengiz* — ibroniycha matnda *dengiz*. Bu oyatdagi mana shu nom hozirgi Aqaba qo‘ltig‘iga (ya’ni Qizil dengizning shimoli–sharqidagi qo‘ltig‘iga) ishora qiladi.

8:18 *Ofir yurti* — Arabiston yarim orolining janubida joylashgan bo‘lishi mumkin. Ofir oltini eng sifatli oltin hisoblangan.

8:18 *960 pud* — ibroniycha matnda *450 talant*, taxminan 15 tonnaga to‘g‘ri keladi.

9:1 *Shava* — bu yurt Arabiston yarim orolining janubi–g‘arb tomonida bo‘lgani ehtimoldan holi emas.

9:4 *soqiy* — shohga o‘z qo‘li bilan sharob quyadigan, saroyda yuqori martabaga ega bo‘lgan, ishonchga loyiq a’yon. Shuningdek, u shoh uchun sharob tanlashi va uni tatib ko‘rib, zaharli emasligiga ishonch hosil qilishi kerak edi.

9:4 *bakovul* — saroyda shoh uchun tayyorlanadigan maxsus taomni tatib ko‘ruvchi va ovqat tayyorlash ishlarini nazorat qiluvchi mansabdor shaxs.

9:4 *Egamizning uyida shoh Sulaymon kuydirib, nazr qilgan qurbonliklar* — qadimiy yunoncha, suryoniycha va lotincha tarjimalardan (yana 3 Shohlar 10:5 ga qarang).

9:9 *250 pud* — ibroniycha matnda *120 talant*, taxminan 4 tonnaga to‘g‘ri keladi.

9:13 *1425 pud* — ibroniycha matnda *666 talant*, taxminan 23 tonnaga to‘g‘ri keladi.

9:15 *yarim pud* — ibroniycha matnda *olti yuz shaqal*, taxminan 8,5 kiloga to‘g‘ri keladi.

9:16 *400 misqol oltin* — ibroniycha matnda *300…oltin* deb yozilgan bo‘lib, o‘lchov birligi berilmagan. 300 biqo (ya’ni yarim shaqal) oltin nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin, taxminan 1,7 kiloga to‘g‘ri keladi (3 Shohlar 10:17 ga qarang).

9:16 *“Lubnon o‘rmoni” degan uyi* — 3 Shohlar 7:2 ga va o‘sha oyatning birinchi izohiga qarang.

9:21 *savdo kemalari* — ibroniycha matnda *Tarshish kemalari*, ulkan savdo kemalari aynan shu nom bilan atalardi. Tarshish hozirgi Ispaniyaning hududida joylashgan bandargoh shahar bo‘lib, o‘zining katta savdo kemalari bilan mashhur edi. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi BANDARGOH so‘ziga qarang.

9:21 *turli–tuman maymunlar* — yoki *maymunlar va tovuslar*.

9:25 *uchqur ot* — bu o‘rindagi ibroniycha so‘z *otliq* ma’nosini ham ifodalashi mumkin.

9:27 *shikamora–anjir daraxti* — 1:15 izohiga qarang.

9:28 *Misr* — yoki *Muzur* (1:16 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang).

10:1 *Shakam shahri* — shimoldagi qabilalarga qarashli asosiy shahar (Yoshua 24:1 ga qarang). Bu shahar Quddusdan qariyb 50 kilometr shimolda, Isroil tepaliklarida joylashgan.

10:1 *Isroil xalqi* — shimoliy qabilalardan tashkil topgan xalq nazarda tutilgan.

10:15 *...Shilo‘lik Oxiyo orqali...Yeribomga bergan so‘zi...* — 3 Shohlar 11:29-39 ga qarang.

10:18 *Odoniram* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Hadoram*.

10:18 *Isroil* — shu kitobning davomida shimoliy shohlik *Isroil* degan nom bilan, janubiy shohlik esa *Yahudo* degan nom bilan yuritilgan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi ISROIL va YAHUDO so‘zlariga qarang.

11:15 *sajdagoh* — ibroniycha matnda *bamax*, ya’ni “tepalik”. Kan’on xudolariga topinadigan joylar *bamax* deb atalardi. Odatda bu sajdagohlar tepaliklarda joylashgan bo‘lib, u yerda Kan’on xudolarining tasvirlari va qurbonliklar keltirish uchun qurbongoh bo‘lardi.

11:15 *echki jinlar* — odamlarning tasavvuriga ko‘ra, bu jinlar sahroda yashardilar.

11:16 *Egamiz* — ibroniycha matnda *Isroil xalqining Xudosi* — *Egamiz*, ravon o‘qilishi uchun mazkur tarjimada soddalashtirilgan.

11:20 *Absalomning qizi Maxo* — Absalomning nevarasi bo‘lgan. 2 Shohlar 14:27 ga ko‘ra, Absalomning yolg‘iz qizi Tamara edi. 13:2 da Maxo Uriyolning qizi deb tanitilgan.

11:21 *kanizaklar* — ibroniycha matnda bu so‘zning ma’nosi quyidagicha: kanizaklar qonuniy xotin bo‘lmasalar–da, xo‘jayinlari ular bilan jinsiy aloqada bo‘lishgan. Qadimgi paytlarda bu ayollarning jiddiy qonuniy huquqlari bo‘lib, xo‘jayinlari ularning erlari sifatida bo‘lgan.

12:2 *Raxabom hukmronligining beshinchi yili* — taxminan miloddan oldingi 926 yil.

12:3 *Habashistonlik* — ibroniycha matnda *Kushlik*. Kush degan joy Misrdan janubda bo‘lib, hozirgi Sudan va Efiopiya mamlakatlarining bir qismini o‘z ichiga olgan edi.

13:2 *Maxo* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Mixiyo*. Uning Maxo degan shakli 3 Shohlar 15:2 dan olingan (yana 11:20 ga qarang).

13:8 *Yeribom...yasattirib bergan oltin buzoqlar...* — 3 Shohlar 12:26-30 ga qarang.

14:3 *sajdagohlar* — 11:15 ning birinchi izohiga qarang.

14:3 *Ashera* — Kan’ondagi xalqlar sajda qilgan hosildorlik xudosi bo‘lib, ayol qiyofasida tasavvur qilingan. Uning erkak jufti Baal edi. Asheraning tasvirlari baland ustun shaklida bo‘lib, yog‘ochdan yasalgan edi.

14:9 *Habashistonlik* — ibroniycha matnda *Kushlik* (shu bobning 12, 13–oyatlarida ham bor). 12:3 izohiga qarang.

14:9 *Morisho shahri* — Quddusdan qariyb 40 kilometr janubi–g‘arbda joylashgan.

14:13 *Garor* — Filistlarning shahri bo‘lib, Yahudo yurtidan janubi–g‘arbda joylashgan.

15:3 *…uzoq vaqt davomida…* — hakamlar davriga ishora (Hakamlar 2:8-23 ga qarang).

15:8 *…Odod o‘g‘li Ozariyo payg‘ambarning aytgan bashoratini eshitgach…* — qadimiy suryoniycha va lotincha tarjimalardan (yana shu bobning 1–oyatiga qarang). Ibroniycha matnda *…bu so‘zlarni va Odod payg‘ambarning aytgan bashoratini eshitgach…*.

15:10 *Oso hukmronligining o‘n beshinchi yili uchinchi oyi* — miloddan oldingi 895 yilning uchinchi oyi. Ibroniy kalendarining Shavon oyi nazarda tutilgan. Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan mayning o‘rtasidan boshlanadi.

15:16 *buvisi* — ibroniycha matnda *onasi*, biroq bu so‘z buvisiga yoki katta momolarning biriga ishora qilishi ham mumkin. 11:20 va 13:1-2 ga ko‘ra, Maxo Osoning buvisi, ya’ni Osoning otasi Abiyoni tuqqan onasi edi.

15:16 *Ashera* — 14:3 ning ikkinchi izohiga qarang.

15:16 *malikalik martabasi* — qadimgi Isroilda yuksak martaba hisoblangan (3 Shohlar 2:19 ga qarang).

15:16 *Qidron soyligi* — Quddus shahridan sharqda joylashgan. Soylik — ikki adir oralig‘idagi pastlik. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi SOYLIK so‘ziga qarang.

15:17 *sajdagohlar* — 11:15 ning birinchi izohiga qarang.

16:1 *Rama shahri* — Quddusdan qariyb 8 kilometr shimolda, Efrayim qirlarida joylashgan.

16:4 *Ovil–Bayt–Maxo* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Ovil–Mayim*. Uning Ovil–Bayt–Maxo degan shakli 3 Shohlar 15:20 dan olingan.

16:8 *Habashistonliklar* — ibroniycha matnda *Kushliklar*. 12:3 izohiga qarang.

17:3 *otasi Oso* — ibroniycha matnda *otasi*. Ba’zi ibroniy qo‘lyozmalarida va qadimiy yunoncha tarjimada *otasi Dovud*. Bu o‘rinda Oso hukmronligining dastlabki yillariga ishora qilingan bo‘lsa kerak, chunki o‘sha paytlarda Oso Xudoning yo‘lidan yurardi (14:2-6, 11, 15:8-15 ga qarang), hukmronligining so‘nggi yillarida esa u Xudoga suyanmay qo‘ygandi (16:7-12 ga qarang).

17:6 *sajdagohlar* — 11:15 ning birinchi izohiga qarang.

17:6 *Ashera* — 14:3 ning ikkinchi izohiga qarang.

18:2 *Gilad* — Iordan daryosining sharq tomonidagi o‘lka.

18:2 *…Yohushafatni Giladdagi Ramo‘t shahriga hujum qilishga ko‘ndirmoqchi bo‘lib…* — o‘sha davrda Ramo‘t shahri Oram shohining qo‘li ostida edi (3 Shohlar 22:1-4 ga qarang).

19:3 *Ashera* — 14:3 ning ikkinchi izohiga qarang.

20:1 *Mavun xalqi* — qadimiy yunoncha tarjimaning ba’zi qo‘lyozmalaridan. Ibroniycha matnda *Ommonliklar*.

20:2 *Edom* — bitta ibroniy qo‘lyozmasidan. Ibroniycha matnda *Oram*. “Oram” va “Edom” so‘zlari ibroniychada deyarli bir xil yoziladi. Edom O‘lik dengizning janubida

joylashgan yurt edi.

20:2 *En–Gedi* — O‘lik dengizning g‘arbiy qirg‘og‘ida joylashgan shahar.

20:10 *Edom yurti* — ibroniycha matnda *Seir tog‘lari* (shu bobning 22, 23–oyatlarida ham bor). Edom yurtining yana bir nomi Seir edi.

20:16 *Yarubol adirlari* — En–Gedi yonida (shu bobning 2–oyatiga va o‘sha oyatning ikkinchi izohiga qarang).

20:25 *…ular ko‘p miqdorda yuk hayvonlarini, mol–holni…* — qadimiy yunoncha tarjimadan. Ibroniycha matnda *…ular murdalar orasidan ko‘p miqdorda mol–holni….*

20:25 *kiyim–kechaklar* — ba’zi ibroniy qo‘lyozmalaridan va qadimiy lotincha tarjimadan. Ibroniycha matnda *murdalar*.

20:26 *Baraka* — ibroniy tilida bu so‘z, xuddi o‘zbek tilidagiday, qut–baraka ma’nosini ifodalaydi, lekin *hamdu sano* ma’nosida ham kelishi mumkin.

20:33 *sajdagohlar* — 11:15 ning birinchi izohiga qarang.

20:36 *savdo kemalari* — ibroniycha matnda *Tarshish kemalari*. 9:21 ning birinchi izohiga qarang.

20:37 *dengiz* — ibroniycha matnda *Tarshish*. Mazkur o‘rinda bu so‘z uzoq safarga chiqish va o‘zga yurtlarga borib, savdo–sotiq bilan shug‘ullanishga ishora qiladi. 9:21 ning birinchi izohiga qarang.

21:7 *U…va’da qilgan edi* — 3 Shohlar 11:36 ga qarang.

21:10 *…hozirgacha…* — shu kitob yozilgan vaqtga ishora.

21:10 *Libna shahri* — Quddusdan qariyb 20 kilometr g‘arbda joylashgan.

21:11 *sajdagohlar* — 11:15 ning birinchi izohiga qarang.

21:16 *Habashiston* — ibroniycha matnda *Kush*. 12:3 izohiga qarang.

21:17 *Oxoziyo* — ibroniycha matnda *Yohuxoz*, Oxoziyoning yana bir ismi (22:1 ga qarang).

22:2 *yigirma ikki* — qadimiy yunoncha tarjimaning ba’zi qo‘lyozmalaridan va qadimiy suryoniycha tarjimadan (yana 4 Shohlar 8:26 ga qarang). Ibroniycha matnda *qirq ikki*.

22:5 *Yoram* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Yohuram* (shu bobning 6, 7–oyatlarida ham bor).

22:5 *Gilad* — Iordan daryosining sharq tomonidagi o‘lka.

22:6 *Yizril shahri* — Isroilning shimolida, Ramo‘tdan qariyb 65 kilometr masofada joylashgan.

22:6 *Oxoziyo* — ba’zi ibroniy qo‘lyozmalaridan, qadimiy yunoncha, suryoniycha va lotincha tarjimalardan (yana 4 Shohlar 8:29 ga qarang). Ibroniycha matnda *Ozariyo*.

22:7 *nevarasi* — ibroniycha matnda *o‘g‘li*. Aslida Yohu Nimshining nevarasi edi (4 Shohlar 9:2 ga qarang). Ibroniychada *o‘g‘il* so‘zi *nasl* ma’nosida ham ishlatiladi.

22:10 *Otaliyo* — Isroil shohi Axabning qizi — Yahudo shohi Yohuramning bevasi edi (21:5-6, 22:2 ga qarang).

22:11 *Yohusheva* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Yohushaviyat*. Uning

Yohusheva degan shakli 4 Shohlar 11:2 dan olingan.

23:11 *shohlik qonunlari* — yoki *shohlik muhri*. Bu o‘rinda ishlatilgan ibroniycha so‘z qonunlarning bir nusxasini (Qonunlar 17:18-19 ga qarang) yoki shohlik muhri bo‘lgan uzukni bildiradi. Bunday muhr shoh hokimiyatining ramzi edi.

24:6 *Muqaddas ahd chodiri* — ibroniycha matnda *Guvohlik chodiri*, Muqaddas chodirning yana bir nomi. Ibroniycha matndagi iboraning *guvohlik* so‘zi o‘nta amr yozilgan ikkita tosh lavhaga ishora qiladi. Bu tosh lavhalar Xudo va Uning xalqi o‘rtasida tuzilgan ahdning dalili, ya’ni toshga bitilgan guvohlik bo‘lib xizmat qilardi. Muso davrida bu ikki tosh lavha Muqaddas chodirdagi Ahd sandig‘ining ichida saqlanardi (Chiqish 40:20 ga qarang).

24:18 *Ashera* — 14:3 ning ikkinchi izohiga qarang.

24:23 *yilning oxiri* — ibroniycha kalendarga ko‘ra, bahorning boshlanishiga — mart oyining o‘rtasiga to‘g‘ri keladi.

24:26 *Yo‘zabad* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Zabad*. Uning Yo‘zabad degan shakli 4 Shohlar 12:21 dan olingan.

24:26 *Sho‘mer* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Shimrit*. Uning Sho‘mer degan shakli 4 Shohlar 12:21 dan olingan.

25:4 *Egamiz…amr qilgan edi* — Qonunlar 24:16 ga qarang.

25:6 *200 pud* — ibroniycha matnda *100 talant*, taxminan 3,4 tonnaga to‘g‘ri keladi.

25:7 *Isroil* — ibroniycha matnda *Efrayim*. Efrayim qabilasi Isroilning shimoliy qismidagi eng katta va nufuzli qabila bo‘lgani bois, Eski Ahdning ba’zi o‘rinlarida Efrayim degan nom Isroilga, ya’ni shimoliy shohlikka nisbatan ishlatilgan. Bu shohlikning poytaxti Samariya edi. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi EFRAYIM so‘ziga qarang.

25:10 *Isroil* — ibroniycha matnda *Efrayim*. Shu bobning 7–oyati izohiga qarang.

25:11 *Tuz vodiysi* — O‘lik dengizning janubidagi o‘lka.

25:11 *Edom* — ibroniycha matnda *Seir* (shu bobning 14–oyatida ham bor). Edom yurtining yana bir nomi Seir edi.

25:17 *Yoho‘sh* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Yo‘sh* (shu bobning 18, 21, 23, 25–oyatlarida ham bor).

25:17 *…menga jang maydonida ro‘baro‘ kelib ko‘r–chi…* — ibroniycha matnda *…kel, bir–birimizga yuzlanaylik…*, bu vaziyatda jang maydonida kuch sinashishga da’vat.

25:21 *Bayt–Shamash shahri* — Quddusdan qariyb 24 kilometr janubi–g‘arbda joylashgan edi.

25:23 *Oxoziyo* — ibroniycha matnda *Yohuxoz*, Oxoziyoning yana bir ismi (22:1, 11 ga qarang).

25:23 *400 tirsak* — taxminan 180 metrga to‘g‘ri keladi.

25:24 *Obidadom* — 1 Solnomalar 13:13-14 ga qarang.

25:27 *Laxish shahri* — Quddusdan qariyb 35 kilometr janubi–g‘arbda joylashgan edi.

25:28 *Dovud qal’asi* — ba’zi ibroniy qo‘lyozmalaridan, qadimiy yunoncha, suryoniycha

va lotincha tarjimalardan (yana 4 Shohlar 14:20 ga qarang). Ibroniycha matnda *Yahudo shahri*.

26:2 *Elet shahri* — Sinay yarim orolining sharqida, Qizil dengizning shimoliy qirg‘og‘idagi bandargoh shahar.

26:5 *…Zakariyo unga Xudoning yo‘lidan yurishni o‘rgatardi* — ba’zi ibroniy qo‘lyozmalaridan, qadimiy yunoncha va suryoniycha tarjimalardan. Ibroniycha matnda *…Zakariyo Xudoning vahiylarini ta’birlovchi edi*.

26:8 *Mavun xalqi* — qadimiy yunoncha tarjimadan. Ibroniycha matnda *Ommonliklar*.

26:18 *Bu Horun naslidan bo‘lgan ruhoniylarning ishidir* — Chiqish 30:1-10, Sahroda 16:39-40 ga qarang.

26:19 *…yara toshdi* — bu ibora ibroniychada har xil teri kasalliklariga nisbatan ishlatilgan so‘zning tarjimasidir (shu bobning 20, 21, 23–oyatlarida ham bor). Odatda bu ibora moxov kasalligiga ishora deb tushuniladi. Teri kasalliklaridan birortasiga yo‘liqqan kishi harom hisoblanar edi. Xasta odam kasalligini boshqalarga yuqtirmasligi va ularni harom qilmasligi uchun, boshqalardan ajratib qo‘yilar edi (Levilar 13:45-46 ga qarang).

27:2 *…otasidan farqli ravishda Egamizning Ma’badida tutatqi tutatmadi* — 26:16-18 ga qarang.

27:3 *Ofel tepaligi* — ko‘hna Quddus shahri aynan shu tepalik ustida joylashgan bo‘lishi mumkin. Shaharning bu qismi yana “Dovud qal’asi” deb atalar edi.

27:5 *200 pud* — ibroniycha matnda *100 talant*, taxminan 3,4 tonnaga to‘g‘ri keladi.

27:5 *100.000 tog‘ora* — ibroniycha matnda *10.000 kor*, taxminan 2200 tonnaga to‘g‘ri keladi.

28:3 *soylik* — ikki adir oralig‘idagi pastlik. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi SOYLIK so‘ziga qarang.

28:3 *…hatto o‘z o‘g‘illarini qurbonlik qilib, olovda kuydirdi* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *…hatto o‘z o‘g‘illarini olovdan o‘tkazdi*. Butparast xalqlarga xos bo‘lgan bu jirkanch odat Xudoning nazarida o‘taketgan qabihlik edi.

28:4 *Sajdagohlar* — 11:15 ning birinchi izohiga qarang.

28:7 *Isroil* — ibroniycha matnda *Efrayim*. 25:7 izohiga qarang.

28:12 *Isroil* — ibroniycha matnda *Efrayim*. 25:7 izohiga qarang.

28:18 *…Yahudo qir etaklari…Nagav cho‘li…* — Yahudo qirlari Yahudo yurtining g‘arbida, Nagav cho‘li esa hozirgi Isroilning janubida, ya’ni O‘lik dengizning janubi–g‘arbida joylashgan edi. Demak, Filistlar g‘arbdan, Edomliklar esa janubi–sharqdan hujum qilishgan.

28:20 *Tig‘latpilasar* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Tig‘latpilnasar*. Tig‘latpilasar miloddan oldingi 745-727 yillarda hukmronlik qilgan.

29:3 *birinchi oy* — ibroniy kalendarining Nison oyi nazarda tutilgan (Nison oyi Abib oyi deb ham ataladi). Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan martning o‘rtasidan boshlanadi.

29:3 *...Hizqiyo...Egamizning uyi eshiklarini qaytadan ochdi* — shoh Oxoz Ma'bad eshiklarini qulflab qo'ygan edi. Shu sababdan xalq u yerda Xudoga sajda qila olmagandi (28:22-25 ga qarang).

29:15 *...Egamizning uyini poklay boshladilar* — 1 Solnomalar 23:28 ga qarang.

29:16-17 *Qidron soyligi* — 15:16 ning oxirgi izohiga qarang.

29:16-17 *birinchi oy* — shu bobning 3–oyatiga berilgan birinchi izohga qarang.

29:21 *gunoh qurbonligi* — birortasi bilmay qilgan gunohi uchun Xudodan kechirim so'rab keltirgan qurbonligi. To'liqroq ma'lumotga ega bo'lish uchun lug'atdagi QURBONLIK so'zi ostida berilgan GUNOH QURBONLIGI iborasiga qarang.

30:1-4 *Fisih ziyofati* — Isroil xalqining Misrdagi qullikdan ozod bo'lishi munosabati bilan nishonlangan ziyofat (Chiqish 12:1-42 ga qarang).

30:1-4 *birinchi oy* — 29:3 ning birinchi izohiga qarang.

30:1-4 *ikkinchi oy* — ibroniy kalendarining Ziv oyi nazarda tutilgan. Hozirgi kalendarga ko'ra, bu oy taxminan aprelning o'rtasidan boshlanadi.

30:6 *Ossuriya bosqinchilari* — 4 Shohlar 17:1-23 ga qarang.

30:6 *Yoqub* — ibroniycha matnda *Isroil*, Yoqubning yana bir ismi (Ibtido 32:27-28 ga qarang).

30:13 *Xamirturushsiz non bayrami* — bu bayram Fisih ziyofatining ertasi kuni boshlanar edi. Bir–biriga ulanib ketgani uchun, bu ikkala bayramga bitta bayram deb ishora qilingan (shu bobning 15, 21–oyatlariga qarang). Isroil xalqi Fisih taomi bilan birga va bir hafta nishonlanadigan Xamirturushsiz non bayrami davomida faqat xamirturushsiz nonlarni iste'mol qilishi kerak edi (Chiqish 12:14-20, 13:3-10 ga qarang).

30:14 *Qidron soyligi* — 15:16 ning oxirgi izohiga qarang.

31:1 *Ashera* — 14:3 ning ikkinchi izohiga qarang.

31:1 *sajdagohlar* — 11:15 ning birinchi izohiga qarang.

31:5 *ushr* — har qanday daromadning o'ndan bir qismi. Levilar 27:30-33, Qonunlar 14:22-29, 26:12-13 ga qarang.

31:7 *uchinchi oy* — ibroniy kalendarining Shavon oyi nazarda tutilgan. Hozirgi kalendarga ko'ra, bu oy taxminan mayning o'rtasidan boshlanadi.

31:7 *yettinchi oy* — ibroniy kalendarining Tishri oyi nazarda tutilgan (Tishri oyi Itanim oyi deb ham ataladi). Hozirgi kalendarga ko'ra, bu oy taxminan sentabrning o'rtasidan boshlanadi.

32:1 *Ossuriya shohi Sanxariv* — miloddan oldingi 705-681 yillarda Ossuriyada hukmronlik qilgan.

32:5 *Millo* — Dovud qal'asi tepalik ustida edi. Bu tepalikning sharq tomoni o'pirilib ketgani uchun uni tuzatish shart bo'lgan. Tepalikning o'pirilib ketgan joyi tuproq bilan to'ldirilgan, kengaytirilgan va mustahkamlangan edi. Tepalikning bu qismi Millo deb atalardi.

32:9 *Laxish shahri* — Quddusdan qariyb 35 kilometr janubi–g'arbda joylashgan edi.

32:12 *sajdagohlar* — 11:15 ning birinchi izohiga qarang.

32:12 *U Yahudo xalqiga va Qudduslіklarga…deb aytgan ekan* — Hizqiyoning qilgan ishlaridan Xudo mamnun edi (Qonunlar 12:2-7, 4 Shohlar 18:3-5 ga qarang). Ammo Ossuriya shohi bu so‘zlarni Yahudo xalqini va Quddus aholisini Hizqiyoga qarshi qo‘zg‘atish niyatida, Xudoga itoat qilmaslikka va ishonmaslikka undash maqsadida aytgan edi (shu bobning 13-19–oyatlariga qarang).

32:22 *Yahudo xalqiga Egamiz har tarafdan osoyishtalik ato qildi* — qadimiy yunoncha va lotincha tarjimalardan. Ibroniycha matnda *Yahudo xalqini Egamiz har tomondan boshqarardi*.

32:30 *…qazdirgan quvur orqali suvni Quddus ichiga olib kirdi* — bu quvur 520 metr uzunlikda bo‘lib, qoyani o‘yib qilingan edi. Suv quvur orqali shahar devori tashqarisidagi Gixo‘n soyligidan shahar ichidagi Siloam hovuziga kelib tushar edi. Yana shu bobning 2-4–oyatlariga qarang.

32:31 *…Bobil shahzodalari…o‘z elchilarini Hizqiyo huzuriga jo‘natganlarida…* — 4 Shohlar 20:12-19 ga qarang.

32:33 *…Dovud nasli xilxonasining to‘riga dafn qilindi* — yoki *…Dovud naslining xilxonasiga, tepalikning yuqori qismiga dafn qilindi*.

33:3 *sajdagohlar* — 11:15 ning birinchi izohiga qarang.

33:3 *Ashera* — 14:3 ning ikkinchi izohiga qarang.

33:6 *soylik* — ikki adir oralig‘idagi pastlik. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi SOYLIK so‘ziga qarang.

33:6 *O‘g‘illarini Xinnum soyligida qurbonlik qilib, olovda kuydirdi…* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *O‘g‘illarini Xinnum soyligida olovdan o‘tkazdi…*. Butparast xalqlarga xos bo‘lgan bu jirkanch odat Xudoning nazarida o‘taketgan qabihlik edi.

33:7 *Xudo bu uy to‘g‘risida…shunday degan edi…* — 3 Shohlar 9:3-5 ga qarang.

33:14 *Ofel tepaligi* — 27:3 izohiga qarang.

33:19 *valiylar kitobida* — yoki *Xo‘zay kitobida*.

34:3 *sajdagohlar* — 11:15 ning birinchi izohiga qarang.

34:3 *Ashera* — 14:3 ning ikkinchi izohiga qarang.

34:20 *Mixiyo* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Mixo*. Uning Mixiyo degan shakli 4 Shohlar 22:12 dan olingan.

34:20 *Axbor* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Abdo‘n*. Uning Axbor degan shakli 4 Shohlar 22:12 dan olingan.

34:22 *Tixvo* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Toqqat*. Uning Tixvo degan shakli 4 Shohlar 22:14 dan olingan.

34:22 *Xarxas* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Xasra*. Uning Xarxas degan shakli 4 Shohlar 22:14 dan olingan.

34:25 *…o‘z qo‘llari bilan yasagan butlari tufayli…* — yoki *…qilgan barcha qilmishlari tufayli…*.

34:30 *Tavrot kitobi* — ibroniycha matnda *Ahd kitobi*, Tavrot kitobining yana bir nomi (shu bobning 14, 15, 19–oyatlariga qarang).

35:1 *Fisih ziyofati* — 30:1-4 ning birinchi izohiga qarang.

35:1 *Birinchi oy* — 29:3 ning birinchi izohiga qarang.

35:4 *Shoh Dovudning va o‘g‘li Sulaymonning yozib qoldirgan ko‘rsatmalariga muvofiq…* — 1 Solnomalar 23:1-26:32 ga qarang.

35:20 *Yo‘shiyo unga qarshi otlandi* — o‘sha paytda Misr fir’avni Nexo (miloddan oldingi 609-595 yillarda hukmronlik qilgan) Ossuriyaliklar tomonida edi. Nexo Ossuriya shohining qo‘li ostidagi yerlarni saqlab qolishda unga yordam bermoqchi bo‘lib, Bobil lashkariga qarshi urush qilish uchun shimol tomon yo‘l olgandi. Yahudo shohi Yo‘shiyo esa Misr va Ossuriyaning bu ittifoqidan mamnun emasdi, chunki ularning kuchayishi Yahudo shohligining osoyishtaligiga xavf solishi mumkin edi.

35:22 *Magido‘* — Jalila ko‘lidan qariyb 40 kilometr janubi–g‘arbda joylashgan.

35:25 *Shu kunga qadar…* — shu kitob yozilgan vaqtga ishora.

36:3 *200 pud* — ibroniycha matnda *100 talant*, taxminan 3,4 tonnaga to‘g‘ri keladi.

36:3 *2 pud* — ibroniycha matnda *bir talant*, taxminan 34 kiloga to‘g‘ri keladi.

36:6 *Bobil shohi Navuxadnazar* — miloddan oldingi 605-562 yillarda Bobilda hukmronlik qilgan.

36:6 *U Yohayiqimni Bobilga olib ketish niyatida zanjirband qildi* — Navuxadnazar Yohayiqimni Bobilga olib ketganmi yoki yo‘qmi, matnda aniq yozilmagan. Yohayiqim uch yil davomida Navuxadnazarga qaram bo‘ldi. Oxiri, u Navuxadnazarga qarshi isyon ko‘tardi. Yohayiqim Quddusda vafot etgan bo‘lishi mumkin (4 Shohlar 24:1-6 ga qarang). Shundan keyin uning o‘g‘li Yohayixin Yahudo taxtiga o‘tirdi. Navuxadnazar uni miloddan oldingi 597 yilda Bobilga asir qilib olib ketdi (4 Shohlar 24:8-15 ga qarang).

36:7 *saroy* — yoki *ma’bad*.

36:9 *o‘n sakkiz* — bitta ibroniy qo‘lyozmasidan, qadimiy suryoniycha tarjimadan va qadimiy yunoncha tarjimaning ba’zi qo‘lyozmalaridan (yana 4 Shohlar 24:8 ga qarang). Ibroniycha matnda *sakkiz*.

36:10 *amaki* — ibroniycha matnda *aka* yoki *uka*, biroq bu ibroniycha so‘z umuman har qanday erkak qarindoshga nisbatan ham ishlatiladi. 4 Shohlar 24:17 ga ko‘ra, Zidqiyo Yohayixinning amakisi edi.

36:17 *Bobil* — ibroniycha matnda *Xaldey*, o‘sha vaqtda Bobil yurti shu nom bilan ham atalardi.

36:21 *Yerga dam berilmagan yillar* — Tavrot qonuniga ko‘ra, har yettinchi yili yerga ishlov berish, ekin ekish Isroil xalqiga man etilgandi (Levilar 25:1-7 ga qarang).

36:21 *…Egamizning Yeremiyo payg‘ambar orqali aytgan so‘zlari…* — Yeremiyo 25:11, 29:10 ga qarang.

36:22 *Kurush hukmronligining birinchi yili* — miloddan oldingi 538 yil. Midiya va Fors lashkarlari shoh Kurush boshchiligida Bobil shahrini miloddan oldingi 539 yilda bosib olgan edilar. Shoh Kurush miloddan oldingi 530 yilgacha Bobilda hukmronlik qildi. U Kir

ismi bilan ham tanilgan.

36:22 *Egamizning Yeremiyo orqali bildirgan so‘zlari* — shu bobning 21–oyatiga berilgan ikkinchi izohga qarang.

EZRA

KITOBI

Kirish

Ezra kitobi bizni “Solnomalar (ikkinchi kitob)”da bayon qilingan Isroil tarixining davomi bilan tanishtiradi. Mazkur kitobda Xudoning O‘z va’dalariga sodiq qolishi va yahudiylarni Bobildagi yetmish yillik surgundan keyin ona yurtiga qaytarib olib kelishi haqida hikoya qilinadi. Kitobda Yahudo yurtiga qaytib kelgan ikki guruh yahudiylar haqida so‘z yuritiladi. Birinchi guruh Zarubabel boshchiligida Quddusga qaytib kelib, Ma’badni qayta qurishni boshlaydi. Zarubabel Yahudo shohi Yohayixinning nabirasi bo‘lib, Quddusga shoh sulolasiga mansub bo‘lgan zodagon sifatida qaytib keladi. Ikkinchi guruh Quddusga tafsirchi Ezra boshchiligida qaytadi. Ezra xalqning axloqiy hayotiga katta e’tibor berib, ularni Xudo oldida pok yashashga undaydi.

Bu kitob Ezraning nomi bilan atalgan. Xudoning qonunini mukammal biladigan mohir tafsirchi Ezra ruhoniy Horun naslidan kelib chiqqan edi. Kitobning ikkinchi qismida Ezra bosh qahramon bo‘lib gavdalanadi. Naximiyo kitobida ham Ezra haqida hikoya qilinadi.

Fors shohi Kurush* miloddan oldingi 538 yili maxsus farmon joriy qilgani to‘g‘risida “Solnomalar (ikkinchi kitob)”ning oxirida bayon qilingan. O‘sha farmonda Kurush yahudiylarga: “O‘z yurtlaringizga qaytib borib, Egangizning uyini tiklanglar”, deb ijozat beradi. Ezra kitobining birinchi qismi (1-6–boblar) Kurushning o‘sha farmoni bilan boshlanadi. Bu qismning davomida bir qancha yahudiylar Quddusga qaytib borgani va Ma’badda ish boshlagani to‘g‘risida hikoya qilinadi. Lekin qo‘shni xalqlar yahudiylarga ko‘p xalaqit berishadi, shuning uchun qurilish ishlari sust boradi. Hatto bir necha yil ish to‘xtab ham qoladi. Nihoyat, miloddan oldingi 515 yili Ma’bad qayta qurib bitkaziladi.

Kitobning bu qismidan keyingi davrda yuz bergan muammolar ham o‘rin olgan (4:6-23). Jumladan, shoh Artaxshas* hukmronligi davrida yahudiylar shahar devorini tiklash ishlarini to‘xtatishga majbur bo‘ladilar.

Kitobning ikkinchi qismi (7-10–boblar) Ezraning Quddusga kelishi bilan boshlanadi. Miloddan oldingi 458 yili Ezra Isroil xalqiga Xudoning qonunlarini o‘rgatish uchun Quddusga qaytib keladi. Lekin Ezra xalqning gunoh qilayotganini ko‘rib, dahshatga tushadi. Bu paytda Isroil xalqi butparast xalqlar bilan quda–andachilik qilar, buning oqibatida ular butparastlikka ruju qo‘yib, Xudoning qonunlarini buzayotgan edilar. Bu gunohlarga qo‘l urgan Isroil xalqi Xudoning qahriga uchrash xavfi ostida edi (Qonunlar 7:1-5 ga qarang). Shu bois Ezra ibodat qilib, xalqning gunohlari uchun tavba qiladi, u Xudoga: “Xalqing gunohlaridan o‘t”, deb yolvoradi. Xalq Xudoning qonunlariga itoat etishga rozi bo‘ladi.

Ezra kitobida Xudoning sodiqligiga urg‘u beriladi. Xudo O‘z xalqini asirlikda ham omon saqlaydi, U butparast shohning yuragini yumshatib, xalqini o‘z yurtiga qaytarib olib keladi. Yahudiylar ko‘p qarshiliklarga qaramay, Xudoning Ma’badini qayta quradilar. Ular o‘z vataniga qaytib kelganlaridan keyin ham, uzoq vaqtgacha mustaqil bo‘la olmaydilar. Ularning ustidan qaysi shohlik hukmronlik qilmasin, Xudo ularning haqiqiy Hukmdori bo‘lib qolaveradi.

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

1–BOB

Shoh Kurush yahudiylarga Quddusga qaytish uchun ijozat beradi

1 Fors shohi Kurush hukmronligining birinchi yilida* Egamizning Yeremiyo orqali
bildirgan so‘zlari* bajo bo‘lishi uchun, Egamiz shoh Kurushning yuragiga Quddusdagi
Ma’badni qayta qurish istagini soldi. Shunday qilib, Kurush o‘z shohligining hamma
tomoniga xabarchilar jo‘natdi va yozma farmonda quyidagilarni e’lon qildi:

2 “Fors shohi Kurush shunday demoqda: Samoviy Xudo — Egamiz yer
yuzidagi jamiki shohliklarni menga bergan. U Yahudo yurtidagi Quddus shahrida
O‘ziga bir uy qurishni menga topshirdi. 3 Xudoning xalqidan bo‘lganlarga men
ijozat beraman: ular Quddusga borishlari va Isroil xalqining Xudosi —
Egamizning uyini qayta qurishlari mumkin. Quddusda sajda qilinadigan Xudo
Udir. Isroil xalqiga o‘zlarining Xudosi yor bo‘lsin. 4 Surgundagi yahudiylar
yashaydigan hamma joyda shunday deb e’lon qilinsin: Quddusga qaytmaydigan
yahudiylar qaytadigan yahudiylarga yordam bersin. Ularga kumush, oltin, safar
uchun zarur buyumlar va chorva berishsin. Bulardan tashqari, Xudoning
Quddusdagi uyi qayta qurilishi uchun ko‘ngildan chiqarib nazrlar berishsin.”

5 Shunday qilib, Yahudo va Benyamin qabilalarining urug‘boshilari, ruhoniylar va
levilar, shuningdek, Xudo ruhlantirgan har bir odam Egamizning Quddusdagi uyini
qayta qurish uchun safarga tayyorlandi. 6 Barcha qo‘shnilari ularga chin ko‘ngildan
chiqarib nazrlar berdilar. Bulardan tashqari, kumush idishlar, oltin, safar uchun
buyumlar, chorva va boshqa qimmatbaho hadyalar berib yordam qildilar. 7 Shoh Kurush
Egamizning uyiga tegishli bo‘lgan buyumlarni olib kelishni buyurdi. Bu buyumlarni shoh
Navuxadnazar Quddusdan olib kelib*, o‘zining xudolari* uyiga qo‘ygan edi. 8 Shoh
Kurush bu buyumlarni xazinabon Mitradot nazorati ostiga topshirdi. Mitradot esa
bularni sanab, Yahudo yo‘lboshchisi* Shashbazzarga berdi. 9 Buyumlarning ro‘yxati
quyidagicha edi:

oltin tog‘orachalar — 30 ta
kumush tog‘orachalar — 1000 ta
boshqa idishlar* — 29 ta
10 oltin kosalar — 30 ta
kumush kosalar — 410 ta
boshqa buyumlar — 1000 ta.

11 Oltin va kumush buyumlarning jami 5400* ta edi. Shashbazzar boshqa asirlar
qatorida Bobildan Quddusga qaytib ketayotganda, bu buyumlarning hammasini o‘zi
bilan olib ketdi.

2–BOB

Surgundan qaytib kelganlarning ro‘yxati

1-2 Bobil shohi Navuxadnazar asir qilib olib ketgan yahudiylarning* bir qismi
Quddusga va Yahudo yurtidagi o‘z shaharlariga qaytib kelib, o‘rnashdilar. Ular

Zarubabel, Yoshua, Naximiyo, Sarayo*, Raliyo, Mardoxay, Bilshon, Mispar, Big‘vay,
Raxum va Banax boshchiligida qaytib kelgan edilar.

Isroil urug‘lari ota–bobolari bo‘yicha ro‘yxat qilinadi

Surgundan qaytib kelgan Isroil erkaklarining soni quyidagicha edi:

3 Paro‘sh urug‘idan — 2172 nafar erkak.
4 Shafatiyo urug‘idan — 372 nafar erkak.
5 Orax urug‘idan — 775 nafar erkak.
6 Paxatmo‘ab, ya’ni Yeshuva hamda Yo‘ab urug‘laridan — 2812 nafar erkak.
7 Elam urug‘idan — 1254 nafar erkak.
8 Zattu urug‘idan — 945 nafar erkak.
9 Zakkay urug‘idan — 760 nafar erkak.
10 Banix urug‘idan — 642 nafar erkak.
11 Bo‘vay urug‘idan — 623 nafar erkak.
12 Ozgad urug‘idan — 1222 nafar erkak.
13 Odonixam urug‘idan — 666 nafar erkak.
14 Big‘vay urug‘idan — 2056 nafar erkak.
15 Adin urug‘idan — 454 nafar erkak.
16 Oter, ya’ni Yoxizqiyo urug‘idan — 98 nafar erkak.
17 Bezay urug‘idan — 323 nafar erkak.
18 Yo‘ra urug‘idan — 112 nafar erkak.
19 Xashum urug‘idan — 223 nafar erkak.
20 Gibor urug‘idan — 95 nafar erkak.

Isroil urug‘lari ota–bobolarining shaharlari bo‘yicha ro‘yxat qilinadi

21 Tagi Baytlahmlik — 123 nafar erkak.
22 Tagi Natufolik — 56 nafar erkak.
23 Tagi Onoto‘tlik — 128 nafar erkak.
24 Tagi Ozmobitlik — 42 nafar erkak.
25 Tagi Xirat–Arimlik, Xafiralik va Baro‘tlik — 743 nafar erkak.
26 Tagi Ramalik va Gebolik — 621 nafar erkak.
27 Tagi Mixmashlik — 122 nafar erkak.
28 Tagi Baytillik va Aylik — 223 nafar erkak.
29 Tagi Navolik — 52 nafar erkak.
30 Tagi Maxbishlik — 156 nafar erkak.
31 Tagi Elamlik — 1254 nafar erkak.
32 Tagi Xarimlik — 320 nafar erkak.
33 Tagi Lo‘dlik, Hodidlik va Ono‘lik — 725 nafar erkak.
34 Tagi Yerixolik — 345 nafar erkak.
35 Tagi Sanolik — 3630 nafar erkak.

Ruhoniylar urug‘lari

36 Surgundan qaytib kelgan ruhoniylarning soni quyidagicha edi:

Yoshua naslining Yodiyo urug‘idan — 973 nafar erkak.
37 Immar urug‘idan — 1052 nafar erkak.

38 Pashxur urug‘idan — 1247 nafar erkak.
39 Xarim urug‘idan — 1017 nafar erkak.

Levilar urug‘lari

40 Surgundan qaytib kelgan levilar urug‘larining soni quyidagicha edi:

Xo‘daviyo naslidan bo‘lgan Yeshuva hamda Kadmil urug‘laridan — 74 nafar erkak.
41 Osif urug‘idan bo‘lgan qo‘shiqchilar — 128 nafar erkak.
42 Shallum, Oter, Talmo‘n, Oqquv, Xatita va Sho‘vay urug‘laridan bo‘lgan Ma’bad darvozabonlari*, hammasi bo‘lib — 139 nafar erkak.

Ma’bad xizmatkorlari urug‘lari

43 Surgundan qaytib kelgan Ma’bad xizmatkorlarining urug‘lari quyidagilar edi:

Zixo, Xasufa, Tabbayo‘t,
44 Kerosh, Siyoho, Pado‘n,
45 Lavon, Xagava, Oqquv,
46 Xagav, Shalmay, Xanon,
47 Giddol, Gaxar, Rayo,
48 Ratan, Nakudo, G‘azzom,
49 Uzzo, Posiyox, Besay,
50 Osnax, Munim, Nafusim,
51 Bobuh, Xakufa, Xorxur,
52 Bazulut, Maxido, Xarsha,
53 Borkis, Sisaro, Tamax,
54 Naziyo, Xatifa.

Sulaymonning qarollari urug‘lari

55 Sulaymon qarollarining* surgundan qaytib kelgan urug‘lari quyidagilar edi:

So‘tay, So‘farat, Parudo,
56 Yalox, Darxun, Giddol,
57 Shafatiyo, Xattil, Paxarathazzavoyim, Omay.

58 Ma’bad xizmatkorlari va Sulaymonning qarollari urug‘laridan bo‘lganlarning jami 392 kishi edi.

Nasl–nasabi noma’lum urug‘lar

59-60 Quyidagilar Tel–Malax, Tel–Xarsha, Xarub, Adon va Immar shaharlaridan kelgan edilar:

Daloyo, To‘viyo va Nakudo urug‘lari — 652 kishi.

Lekin bular o‘zlarining urug‘boshisi Isroil avlodiga mansubligini isbotlay olmasdilar.
61-62 Quyidagi ruhoniylar urug‘lari ham o‘z nasabnomasini topa olmadilar: Xavayo, Xakko‘z va Borzulay urug‘lari. (Borzulayning bobosi Giladlik Borzulay degan odamning qiziga uylangan bo‘lib, bu urug‘ o‘sha ayolning urug‘i nomi bilan yuritilar edi.) Shu sababdan ular xizmat qilishga nopok hisoblanib, ruhoniylikka qabul qilinmadilar.

63 Yahudo hokimi* ularga shunday dedi: “Birorta ruhoniy Xudodan Urim va Tummim* orqali ruhoniy ekanligingizni so‘rab, tasdiqlamaguncha, sizlar nazrlarning ruhoniylarga tegishli ulushidan tanovul qilmaysizlar.”

Surgundan qaytib kelgan jamoaning jami

64 Bu jamoa jami 42.360 kishidan* iborat edi. 65 Bulardan tashqari, qul va cho‘rilari — 7337 kishi, qul va cho‘ri qo‘shiqchilar 200 kishi edi. 66 Jamoaning 736 ta oti, 245 ta xachiri, 67 435 ta tuyasi, 6720 ta eshagi bor edi.

68 Asirlar jamoasi Quddusga — Egamiz uyining vayronalari oldiga kelishdi. Shu zahoti, ba’zi urug‘boshilar Xudoning uyini oldingi o‘rnida qayta tiklash uchun ko‘ngildan chiqarib nazrlar keltirdilar. 69 Har biri qurbi yetgancha nazr atadi. Ular qurilish uchun jami 61.000 oltin tanga*, 190 pud* kumush va ruhoniylar uchun 100 ta ko‘ylak berdilar.

70 Ruhoniylar, levilar, qo‘shiqchilar, Ma’bad darvozabonlari, Ma’bad xizmatkorlari va xalqdan bir qanchasi Quddusga hamda uning atrofidagi shaharlarga o‘rnashib oldilar. Isroil xalqining qolganlari esa o‘z shaharlariga borib joylashdilar*.

3–BOB

Quddusda sajda qilish qaytadan boshlanadi

1 Isroil xalqi o‘z shaharlariga o‘rnashib olgandan keyin, yettinchi oyda* hammasi Quddusda yig‘ilishdi*. 2 Yohuzadax* o‘g‘li Yoshua, uning ruhoniy hamkorlari va Shaltiyol o‘g‘li Zarubabel* o‘z urug‘–aymog‘i bilan birgalikda Isroil xalqining Xudosiga atab, qurbongohni qaytadan qurdilar. Ular Xudoning odami Musoning Tavrot kitobida yozilgan amrlariga muvofiq kuydiriladigan qurbonliklarni keltirmoqchi edilar. 3 Ular mahalliy xalqlardan qo‘rqishlariga qaramay, qurbongohni oldingi poydevori ustiga qurdilar. Qurbongohning ustida har kuni ertalab va kechqurun Egamizga qurbonliklarni kuydirib nazr qildilar. 4 So‘ngra Musoning qonunida yozilgani singari, Chayla bayramini* nishonladilar. Bayramning har bir kuniga oid qurbonliklar keltirib, kuydirdilar. 5 Ular kunda kuydiriladigan qurbonliklardan tashqari, har oyda nishonlanadigan yangi oy shodiyonasida va yil davomida Egamizga atab nishonlanadigan bayramlarda qurbonliklar keltirdilar. Shuningdek, ko‘ngildan chiqarib qurbonliklar olib keldilar. 6 Xullas, odamlar yettinchi oyning birinchi kunidan boshlab, Egamizga atab kuydiriladigan qurbonliklarni keltira boshlagan edilar. Lekin Egamizning Ma’badi poydevori hali yotqizilmagan edi.

Xalq Ma’badni qayta qura boshlaydi

7 Xalq tosh yo‘nuvchilarni va duradgorlarni pul bilan ta’minlab turdi. Ular Fors shohi Kurushning* ijozati bilan O‘rta yer dengizi orqali Lubnondan Yaffa shahriga* sadr yog‘ochlarini keltirdilar. Yog‘ochlarni olib kelgan Sidonliklar va Tirliklarga* yegulik, ichimlik va zaytun moyi berdilar. 8 Surgundan qaytganlar Xudoning Quddusdagi uyi vayronalari oldiga kelganlariga bir yilu ikki oy* bo‘lgach, ular Egamizning uyini qayta qurishni boshladilar. Qurilishda Shaltiyol o‘g‘li Zarubabel, Yohuzadax o‘g‘li Yoshua, ruhoniylar va levilar, shuningdek, surgundan qaytib kelgan hamma odamlar ishtirok etdi. Ular qurilish ishlarini nazorat qilish uchun yigirma va undan yuqori yoshdagi levilarni tayinladilar. 9 Xudoning uyi qurilishini Yeshuva, uning o‘g‘illari va qarindoshlari, Kadmil va uning o‘g‘illari nazorat qilar edilar. (Yeshuva va Kadmil

Xo‘daviyo* naslidan edilar.) Ularga bu ishda levilarning Xanadod urug‘i yordam berar edi.

10 Binokorlar Egamiz Ma’badining poydevorini yotqizib bo‘lganlaridan keyin,
ruhoniylar o‘z liboslarini kiydilar. Isroil shohi Dovudning ko‘rsatmalariga muvofiq,
ruhoniylar karnaylari bilan, Osif naslidan bo‘lgan levilar zillari bilan Egamizga hamdu
sano aytish uchun o‘z joylarini egalladilar. 11 Ular Egamizga hamdu sano va shukronalar
aytib, shunday naqorat kuyladilar:

> “Egamiz yaxshidir,
> Uning Isroilga bo‘lgan sodiq sevgisi abadiydir.”

Egamizning uyi poydevori yotqizilgani uchun butun xalq baland ovoz bilan Egamizga
hamdu sano aytdi. 12 Odamlar xursandchilikdan baqirardi, Egamizning oldingi uyini
ko‘rgan yoshi ulug‘ ruhoniylar, levilar va urug‘boshilarning ko‘pchiligi esa uyning
poydevorini ko‘rganlarida ho‘ngrab yig‘ladilar. 13 Xalq shunchalik qattiq baqirardiki,
ovozlari uzoqdan ham eshitilib turardi. Buni eshitganlar xursandchilik ovozlarini yig‘i
tovushidan farqlay olmasdi.

4–BOB

Dushmanlar Ma’badning qayta qurilishiga to‘sqinlik qiladilar

1 Yahudo va Benyamin qabilasining g‘animlari: “Surgundan qaytib kelganlar Isroil
xalqining Xudosi — Egamiz Ma’badini qayta qurayotgan ekanlar”, degan xabarni eshitib
qolishdi. 2 Ular Zarubabelning va urug‘boshilarning oldiga kelib, shunday dedilar: “Biz
ham sizlarga qo‘shilib Xudoyingizning uyini quraylik, chunki biz ham, sizlar singari,
Xudoyingizga sajda qilamiz. Ossuriya shohi Isarxaddo‘n* bizni bu yerga olib kelgandan
buyon Xudoyingizga qurbonlik qilib kelyapmiz.” 3 Lekin Zarubabel, Yoshua va Isroilning
boshqa urug‘boshilari ularga shunday deb javob berdilar: “Sizlar Xudoyimizga uyni biz
bilan birga qurmaysizlar. Isroil xalqining Xudosi — Egamiz uchun uyni o‘zimiz quramiz.
Fors shohi Kurush* buni bizga buyurgan.”

4 Shundan keyin mahalliy xalqdan bo‘lgan bu g‘animlar Yahudo xalqini sarosimaga
solib, qo‘rqitishga va qurilish ishlaridan qaytarishga harakat qilishdi. 5 Ular
amaldorlarga pora berib, Fors shohi Kurushning butun hukmronligi davomida Ma’badni
qayta qurish rejalariga qarshilik qilib keldilar. Bu ahvol to Doro taxtni egallab, Fors
shohi bo‘lgunga qadar* davom etgan edi.

Yahudiylar yana qarshiliklarga duch keladilar

6 Bir necha yildan keyin* shoh Axashverash* taxtga chiqdi. Axashverash
hukmronligining boshlarida, g‘animlar Yahudo yurti va Quddus shahrida yashayotgan
yahudiylarga qarshi aybnoma yozdilar.

7 Hatto keyinroq — Fors shohi Artaxshas* hukmronligi davrida ham Bishlam,
Mitradot, To‘val va ularning boshqa sheriklari shohga maktub yozdilar. Maktub
oramiycha* yozilib, tarjima qilindi*.

8 Keyin hokim Raxum va kotib Shimshay ham shoh Artaxshasga Quddus aholisini
qoralab maktub yozdi. Maktub shunday so‘zlar bilan boshlangan edi:

9 “Hokim Raxumdan, kotib Shimshaydan va ularning boshqa sheriklari —
hakamlar, yo‘lboshchilar, amaldorlar, Eraxliklar, Bobilliklar, Shushanliklar, ya’ni
Elam xalqidan, 10 shuningdek, ulug‘ va qudratli shoh O‘snapar Samariya*
shaharlariga va Furot daryosining g‘arbidagi viloyatga* olib kelib o‘rnashtirgan
turli xalqlardan* maktub.”

11 Ular yuborgan maktubning mazmuni quyidagicha edi:

“Shoh Artaxshas janobi oliylari! Biz — Furot daryosining g‘arbidagi viloyatda
istiqomat qiluvchi qullaringiz sizga salom yo‘llamoqdamiz.
12 Janobi oliylariga shu narsa ma’lum bo‘lsinkim, sizning qo‘l ostingizdagi
boshqa o‘lkalardan Quddusga kelib o‘rnashgan yahudiylar isyonkor, bexosiyat
shaharni qaytadan tiklamoqdalar. Ular poydevor yotqizib, tez orada shahar
devorlarini ham qurib tugatadilar. 13 Janobi oliylarini shundan xabardor
qilmoqchimizki, agar shahar qaytadan qurilib, devorlari ham bitsa, yahudiylar
o‘lpon, soliq va xiroj to‘lamay qo‘yadilar. Natijada shohlikning daromadi kamayib
ketadi.
14 Saroyning tuziga biz ham sherik bo‘lganimiz uchun shohimizning
sharmanda bo‘lishiga qarab o‘tirishimiz bizga to‘g‘ri kelmaydi. Shuning uchun
maktub jo‘natib, shohimizni xabardor qilmoqchi bo‘ldik. 15 Siz farmon bering:
ota–bobolaringizning yilnomalarini ko‘rib chiqishsin. Bu shahar g‘alayon makoni
bo‘lganini o‘sha yilnomalardan topasiz. Bu shahar ilgaridan hukmdorlar va
viloyat hokimlariga qarshi bosh ko‘tarib, ko‘p muammolar tug‘dirgan, shu
sababli vayron qilingan edi. 16 Biz janobi oliylariga shuni ma’lum qilib
qo‘ymoqchimizki, agar bu shahar qayta qurilib, devorlari bitsa, Furot daryosining
g‘arbidagi bu viloyatga egalik qila olmay qolasiz.”

17 Shoh quyidagicha javob jo‘natdi:

“Samariyada va Furot daryosining g‘arbidagi viloyatda istiqomat qilayotgan
hokim Raxumga, kotib Shimshayga va ularning boshqa sheriklariga salom
yo‘llayman.
18 Sizlar menga yuborgan maktub huzurimda tarjima qilinib, o‘qib eshittirildi.
19 Shunday qilib, mening farmonimga binoan, tekshiruv olib borildi va bu shahar
oldindan shohlarga qarshi isyon ko‘targani aniqlandi. Haqiqatan ham, bu shahar
isyonu g‘alayon makoni bo‘lgan ekan. 20 Quddusda qudratli shohlar bo‘lgan ekan.
Ular Furot daryosining g‘arbidagi barcha yurtlarni boshqargan ekanlar, o‘sha
yurtlardan o‘lpon, soliq va xiroj yiqqan ekanlar. 21 Shuning uchun yahudiylarga
buyuringlar, ishni to‘xtatsinlar. Men farmon bermagunimcha shahar qayta
qurilmasin. 22 Hushyor bo‘linglar: mening manfaatimga zarar keltiradigan ish
boshqa qilinmasin.”

23 Shoh Artaxshasning maktubi Raxum, kotib Shimshay va ularning sheriklari
huzurida o‘qilgach, ular shosha–pisha Quddusga bordilar, shahar qurilishini to‘xtatishga
yahudiylarni majburladilar.

Ma’baddagi qurilish ishlari qayta boshlanadi

24 Xudoning Quddusdagi uyini qayta qurish ishlari to‘xtatilgan edi. Fors shohi Doro
hukmronligining ikkinchi yiligacha* u yerda hech qanday ish qilinmadi.

5–BOB

1 O‘sha davrda Xaggey va Iddo o‘g‘li Zakariyo payg‘ambarlar Yahudo yurtidagi va
Quddusdagi yahudiylarga Isroil xalqining Xudosi nomidan bashorat qila boshladilar.
2 Shunda Shaltiyol o‘g‘li Zarubabel* va Yohuzadax* o‘g‘li Yoshua Xudoning Quddusdagi
uyini qayta qurishga yana kirishdilar. Xudoning payg‘ambarlari ularning ishini qo‘llab–
quvvatlab turdilar.
3 O‘sha zahoti Furot daryosining g‘arbidagi viloyat* hokimi Tattanay bilan
Shatarbo‘zanay hamda ularning sheriklari yahudiylarning oldiga kelib: “Bu uyni
ko‘tarishga, uni qayta qurishga kim sizlarga ijozat berdi?” deb so‘rashdi. 4 Binoni
qurayotgan odamlarning ismlarini aytishni talab qilishdi*. 5 Lekin Xudo yahudiy
oqsoqollariga nazarini solgan edi. Shuning uchun Fors amaldorlari shoh Doroga*
maktub yuborishga qaror qildilar. “Maktubga javob kelmaguncha yahudiylarni
to‘xtatmaymiz”, deb kelishib oldilar.

Shoh Doroga yuborilgan maktub

6 Furot daryosining g‘arbidagi viloyat hokimi Tattanay, Shatarbo‘zanay va ularning
sheriklari — viloyat amaldorlari shoh Doroga maktub yubordilar. 7 Ular yuborgan
maktubning mazmuni quyidagicha edi:

“Shoh Doro janobi oliylariga tinchlik–omonlik bo‘lsin!
8 Shoh janoblariga ma’lum bo‘lsinki, biz Yahudo viloyatida ulug‘ Xudoga atab
qurilayotgan uyga borgan edik. Bu uy yo‘nilgan toshlardan va sadr yog‘ochidan
qurilyapti. Ish qunt bilan qilinyapti, qurilish bir maromda ilgarilab boryapti. 9 Biz
o‘sha yerdagi oqsoqollar bilan gaplashdik, ulardan: «Bu uyni ko‘tarishga, uni
qayta qurishga kim sizlarga ijozat berdi?» deb so‘radik. 10 Sizni xabardor qilib
qo‘yaylik deb, ularga boshchilik qilayotgan odamlarning ismlarini ham so‘radik.
11 Ularning bizga bergan javobi shu bo‘ldi: «Biz Samoviy Xudoning qullarimiz.
Biz tiklayotgan Xudoning bu uyi ancha yillar oldin Isroilning ulug‘ bir shohi
tomonidan qurib bitkazilgan edi*. 12 Lekin ota–bobolarimiz Samoviy Xudoni
g‘azablantirdilar. Shuning uchun Xudo ularni Xaldey qabilasidan bo‘lgan Bobil
shohi Navuxadnazarning qo‘liga berdi*. Navuxadnazar bu uyni vayron qilib,
xalqni Bobilga surgun qildi. 13-14 Xudoning uyidan oltin va kumush buyumlarni
olib, Bobildagi ma’badga olib ketdi. Lekin Bobil shohi Kurush* o‘z
hukmronligining birinchi yilida, Xudoning uyi qayta qurilsin, deb farmon
chiqardi. U hatto Quddusdagi Ma’badga qarashli o‘sha oltin va kumush
buyumlarni Bobildagi ma’baddan olib kelishni buyurib, Shashbazzar degan
odamga berdi. Shoh Kurushning o‘zi Shashbazzarni Yahudoning hokimi* qilib
tayinladi. 15 U Shashbazzarga shunday dedi: ‘Bu buyumlarni Quddusga olib bor.
Xudoning uyini oldingi o‘rnida qurdirib, buyumlarni Ma’badga joylashtir.’
16 Shunda Shashbazzar kelib, Xudoning Quddusdagi uyi poydevorini yotqizdirdi*.
O‘shandan buyon hozirgacha qurilish davom etmoqda, hali tugagani yo‘q.»

17 Endi, shohimizga ma’qul bo‘lsa, Bobildagi shohlik yilnomalarini sinchiklab
qarab chiqsalar. O‘shanda shoh Kurush Xudoning Quddusdagi o‘sha uyini qayta
qurish uchun farmon chiqarganmi yoki yo‘qmi, ko‘radilar. Shohimiz bu ishga oid
qarorlarini bizga ma’lum qilishlarini so‘raymiz.”

6–BOB

Shoh Kurushning farmoni qidiriladi

1 Shundan so‘ng shoh Doro*, Bobilda saqlanadigan hujjatlar sinchiklab qarab
chiqilsin, deb farmon berdi. 2 Nihoyat, Midiya viloyatining markazi Ekbatana shahridagi
arxivdan bir o‘rama qog‘oz* topildi. Unda quyidagilar yozilgan edi:

3 “Shoh Kurush* o‘z hukmronligining birinchi yilida Xudoning Quddusdagi
uyiga oid shunday farmon chiqardi: Xudoning uyi oldingi o‘rnida qayta qurilsin,
toki odamlar u yerda qurbonliklar keltira oladigan bo‘lishsin. Bu uyning
balandligi oltmish tirsak*, kengligi ham oltmish tirsak bo‘lsin. 4 Devorlari
yo‘nilgan tosh va yog‘ochdan qurilsin, har uch qator toshning ustiga bir qator
yog‘och yotqizilsin. Xarajatlar shoh xazinasidan to‘lansin. 5 Bundan tashqari,
Navuxadnazar Quddusdagi Ma’baddan Bobilga olib kelgan Xudoning uyiga
tegishli buyumlar* ham Quddusga qaytarib olib borilsin. Hammasi Xudoning
uyiga oldingiday joylashtirilsin.”

Shoh Doro Ma’baddagi ishlarni davom ettirishni buyuradi

6 Shoh Doro shunday maktub jo‘natdi: “Furot daryosining g‘arbidagi viloyat*
hokimi Tattanay, Shatarbo‘zanay va ularning sheriklari — viloyat amaldorlari!
Sizlar nari turinglar! 7 Xudoning uyidagi ishlarga aralashmanglar. Yahudo hokimi
va yahudiy oqsoqollari Xudoning uyini oldingi o‘rnida qaytadan quraverishsin.
8 Bundan tashqari, sizlar yahudiy oqsoqollariga Xudoning uyini qayta qurishda
quyidagicha yordam berishingizni amr qilaman: ish uchun kerak bo‘lgan hamma
mablag‘ni ularga kechiktirmay yetkazib turinglar. Mablag‘ni Furot daryosining
g‘arbidagi viloyatdan yig‘ilgan o‘lpondan — shoh xazinasidan to‘langlar.
9 Quddusdagi ruhoniylar Samoviy Xudoga har kuni kuydiriladigan nazrlarni
keltira olishlari uchun ularni kerakli narsalar bilan ta’minlanglar. Ularga
so‘raganini — buqa, qo‘chqor, qo‘zilarni, shuningdek, bug‘doy, tuz, sharob va
zaytun moyini beringlar. 10 Shunda ular Samoviy Xudoga ma’qul keladigan
qurbonliklarni nazr qila oladigan bo‘lishadi hamda meni va farzandlarimni duo
qilib yurishadi. 11 Yana buyuraman: kim bu farmonimni o‘zgartirsa, o‘sha
odamning uyidan xoda sug‘urib olinsin. Aybdor odam tik o‘rnatilgan xodaning
uchiga qoqilsin. Qilgan jinoyati uchun uyi buzib tashlanib, go‘ngtepaga
aylantirilsin. 12 Bu farmonimni o‘zgartirishga uringan yoki Xudoning Quddusdagi
uyini yo‘qotishga harakat qilgan har qanday shoh yoki xalqni Xudoning O‘zi yo‘q
qilsin. Zotan, Xudo ulug‘lanishi uchun O‘ziga Quddus shahrini tanlagan. Bu
farmonni men, Doro, joriy qildim. Farmonim so‘zsiz bajarilsin.”

Ma’bad qurib bitkaziladi va Xudoga bag‘ishlanadi

13 Shoh Doro yuborgan buyruqqa muvofiq, Furot daryosining g‘arbidagi viloyat

hokimi Tattanay, Shatarbo‘zanay va ularning sheriklari shohning farmonini so‘zsiz bajarishdi. 14 Shunday qilib, yahudiy oqsoqollari Xudoning uyini quraverdilar, ish bir maromda ilgarilab borardi. Xaggey va Iddo o‘g‘li Zakariyo payg‘ambarlar esa bashoratlari bilan ularni ruhlantirib turdilar. Yahudiy oqsoqollari Isroil xalqining Xudosi amriga hamda Fors shohlari Kurush, Doro va Artaxshasning* farmonlariga ko‘ra, qurilishni tamomladilar. 15 Adar oyining* uchinchi kuni, shoh Doro hukmronligining oltinchi yilida* Xudoning uyi qurilishi tugatildi.

16 Isroil xalqi — ruhoniylar, levilar va surgundan qaytgan boshqa odamlar shod–xurramlik bilan uyni Xudoga bag‘ishladilar. 17 Ular Xudo uyining bag‘ishlanishiga atab, 100 ta buqa, 200 ta qo‘chqor, 400 ta qo‘zini qurbonlik qildilar. Isroil qabilalarining soniga ko‘ra, butun Isroil xalqi uchun 12 ta takani gunoh qurbonligi* qildilar. 18 So‘ng ruhoniy va levilarni guruhlarga bo‘ldilar, ularga Xudoning Quddusdagi uyida bajariladigan vazifalarni taqsimlab berdilar. Bularning hammasini Musoning kitobida yozilgan ko‘rsatmalar bo‘yicha qildilar.

Fisih ziyofati va Xamirturushsiz non bayrami

19 Surgundan qaytganlar keyingi yilning birinchi oyi* o‘n to‘rtinchi kunida Fisih ziyofatini o‘tkazdilar. 20 Ruhoniylar va levilar o‘zlarini pokladilar. Hammalari pok bo‘lganlaridan keyin, levilar surgundan qaytgan xalq uchun, ruhoniylar uchun va o‘zlari uchun Fisih qo‘zisini so‘ydilar. 21 Surgundan qaytgan Isroil xalqi Fisih taomidan tanovul qildi. Yurtdagi boshqa odamlar ham yahudiylarga qo‘shilib, Fisih taomidan tanovul qildilar. Ular Isroil xalqining Xudosiga — Egamizga sajda qilish uchun qo‘shni xalqlarning butparastlik udumlaridan voz kechgan edilar. 22 Hammasi shod–xurramlik bilan yetti kun davomida Xamirturushsiz non bayramini birgalikda nishonladilar. Ular xursand edilar, chunki Egamiz ularni Ossuriya shohining* iltifotiga sazovor qilgan edi. Ossuriya shohi ularga Isroil xalqi Xudosining uyini qayta qurishda yordam bergandi.

7–BOB

Ezra Quddusga keladi

1 Oradan ko‘p yillar* o‘tdi. Fors shohi Artaxshas* hukmronligi davrida Ezra degan bir odam bor edi. Uning nasabnomasi quyidagicha edi:

Ezra — Sarayoning o‘g‘li*,
Sarayo — Ozariyoning o‘g‘li,
Ozariyo — Xilqiyoning o‘g‘li,
2 Xilqiyo — Shallumning o‘g‘li,
Shallum — Zodo‘xning o‘g‘li,
Zodo‘x — Oxitobning o‘g‘li,
3 Oxitob — Emoriyoning o‘g‘li,
Emoriyo — Ozariyoning o‘g‘li,
Ozariyo — Maroyo‘tning o‘g‘li,
4 Maroyo‘t — Zaraxiyoning o‘g‘li,
Zaraxiyo — Uzzining o‘g‘li,
Uzzi — Bukkining o‘g‘li,
5 Bukki — Abushuvaning o‘g‘li,

Abushuva — Finxazning o‘g‘li,
Finxaz — Elazarning o‘g‘li,
Elazar — oliy ruhoniy Horunning o‘g‘li edi.

6-7 Ezra Isroil xalqining Xudosi — Egamizning Musoga bergan qonunini juda yaxshi biladigan mohir tafsirchi edi.

Shoh Artaxshas hukmronligining yettinchi yilida* Ezra Bobildan Quddusga tomon yo‘lga otlandi. Isroil xalqidan, ruhoniylardan, levilardan, qo‘shiqchilardan, Ma’bad darvozabonlaridan, Ma’bad xizmatkorlaridan ba’zilari ham Ezra bilan birga Quddusga ketmoqchi bo‘ldilar. Ezraga Egasi Xudo yor bo‘lgani uchun, shoh unga so‘ragan narsasini in’om qildi. 8-9 Birinchi oyning* birinchi kunida ular Ezraning boshchiligida Bobildan chiqdilar. Ezraga Xudoning marhamati yor bo‘lgani uchun, ular to‘rt oydan keyin — beshinchi oyning* birinchi kunida Quddusga yetib keldilar. 10 Ezra butun hayotini Egamiz bergan Tavrot kitobini o‘rganishga, unga amal qilishga, Tavrotdagi qonun–qoidalarni Isroil xalqiga o‘rgatishga bag‘ishlagan edi.

Shoh Artaxshasning Ezraga bergan xati

11 Egamizning Isroil xalqiga bergan amr va qonunlarining mohir tafsirchisi — ruhoniy Ezraga shoh Artaxshas maktub bergan edi. Maktubning mazmuni quyidagicha edi:

12 “Samoviy Xudo qonunlarining mohir tafsirchisi — ruhoniy Ezraga
shohanshoh Artaxshasdan salomlar bo‘lsin.
13 Mening shohligimda istiqomat qilayotgan Isroil xalqidan, shuningdek,
ruhoniy va levilardan sen bilan Quddusga ketishni istagan har kimga ijozat
berilsin, deb farmon beraman. 14 Men va yettita maslahatchim seni Yahudo yurti
va Quddusga yuborib, u yerdagi vaziyatni tekshirib chiqishingga vakolat beramiz.
Senga topshirilgan Xudoyingning qonuni u yerda ijro etilyaptimi yoki yo‘qmi,
bilib kel. 15 Quddusda maskan qilgan Isroil xalqining Xudosiga biz ko‘ngildan
chiqarib nazr qilgan kumush va oltinlarni ham o‘zing bilan olib ket. 16 Bobil
viloyati bo‘ylab sen to‘playdigan hamma kumush va oltinni ol. Isroil xalqi va
ularning ruhoniylari o‘z Xudosining Quddusdagi uyi uchun ko‘ngildan chiqarib
beradigan nazrlarni ham olib ket.
17 Bu kumush va oltinga, birinchi navbatda, buqalar, qo‘chqorlar, qo‘zilar,
ularga qo‘shib qilinadigan don bilan sharob nazrlarini sotib ol. Bularni
Xudoyingning Quddusdagi uyi qurbongohida nazr qil. 18 Qolgan kumush va
oltinni esa Xudoyingning xohishiga muvofiq, o‘zingga va hamkorlaringga ma’qul
kelganicha ishlatsang bo‘ladi. 19 Xudoyingning uyida foydalanish uchun berilgan
buyumlarni Quddusdagi Xudoga in’om qil. 20 Bordi–yu, Xudoyingning uyi uchun
yana boshqa xarajatlar talab qilinsa, mablag‘ni shoh xazinasidan olishing
mumkin.
21 Men, shoh Artaxshas, Furot daryosining g‘arbidagi viloyat*
xazinabonlarining hammasiga farmon beraman: Samoviy Xudo qonunlarining
mohir tafsirchisi — ruhoniy Ezra nima talab qilmasin, uning talabi so‘zsiz ijro
etilsin. 22 200 pudga* qadar kumush, 1000 tog‘oraga* qadar bug‘doy, 200
ko‘zaga* qadar sharob, 200 ko‘zaga qadar moy va keragicha tuz berilsin.

23 Samoviy Xudo O‘z uyi uchun nimalarni amr qilgan bo‘lsa, o‘sha narsalar albatta
muhayyo qilinsin. Mendan va mening merosxo‘rlarimdan Xudo g‘azablanmasin.
24 Biz yana sizlarni xabardor qilamizki, ruhoniylardan, levilardan,
qo‘shiqchilardan, Ma’bad darvozabonlaridan, Ma’bad xizmatkorlaridan,
Xudoning uyidagi boshqa xizmatkorlardan o‘lpon, soliq yoki xiroj olish man
etiladi.
25 Sen esa, Ezra, Xudo bergan donolik bilan qozi va hakamlarni tayinla. Ular
Furot daryosining g‘arbidagi viloyatda Xudoyingning qonunlarini biladigan
jamiki xalqni hukm qilsinlar. Qonunlarni bilmaydigan odamlarga sizlar ta’lim
beringlar. 26 Xudoyingning qonuniga va shohning qonuniga itoat qilmaganlarning
hammasi albatta jazoga tortilsin: qatl qilinsin yoki surgun qilinsin, qamoqqa
tashlansin yoki mol–mulki musodara qilinsin.”

Ezra Xudoni madh qiladi

27 Ota–bobolarimizning Xudosi — Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin! Egam
Quddusdagi uyini sharaflash istagini shohning yuragiga soldi. 28 Egam Xudoning
marhamati bilan men* shohning, uning maslahatchilari va barcha obro‘li a’yonlarining
iltifotiga sazovor bo‘ldim.

Ezra safarga tayyorlanadi

Egam Xudo menga yor bo‘lgani uchun men dadil bo‘lib, Isroil yo‘lboshchilarini o‘zim
bilan olib ketgani to‘pladim.

8–BOB

Ezra bilan birga surgundan qaytib kelgan odamlar

1 Shoh Artaxshas* hukmronligi davrida men* bilan birga Bobildan ketgan
urug‘boshilar va ular bilan birga ro‘yxatga olinganlar quyidagilar edi:

2-3 Finxaz urug‘idan — Gershom.
Itamar urug‘idan — Doniyor.
Dovud urug‘idan — Shaxaniyo naslidan bo‘lgan Xattush.
Paro‘sh urug‘idan — Zakariyo va u bilan birga ro‘yxatga olingan 150 nafar erkak.
4 Paxatmo‘ab urug‘idan — Zaraxiyo o‘g‘li Elixo‘nay va u bilan birga 200 nafar
erkak.
5 Zattu urug‘idan — Yaxaziyol o‘g‘li Shaxaniyo* va u bilan birga 300 nafar erkak.
6 Adin urug‘idan — Yo‘natan o‘g‘li Evid va u bilan birga 50 nafar erkak.
7 Elam urug‘idan — Otaliyo o‘g‘li Yeshayo va u bilan birga 70 nafar erkak.
8 Shafatiyo naslidan — Mikoyil o‘g‘li Zabadiyo va u bilan birga 80 nafar erkak.
9 Yo‘ab naslidan — Yoxiyol o‘g‘li Obodiyo va u bilan birga 218 nafar erkak.
10 Banix urug‘idan — Yo‘sifiyo o‘g‘li Shalumit* va u bilan birga 160 nafar erkak.
11 Bo‘vay urug‘idan — Bo‘vay o‘g‘li Zakariyo va u bilan birga 28 nafar erkak.
12 Ozgad urug‘idan — Xakkatan o‘g‘li Yo‘xanon va u bilan birga 110 nafar erkak.
13 Odonixam urug‘idan — Elifalet, Yaviyol, Shamayo va ular bilan birga 60 nafar
erkak. Elifalet, Yaviyol va Shamayo qarindoshlari orasidan eng oxirgi bo‘lib
qaytib keldilar*.

14 Big‘vay urug‘idan — Utay, Zakkur va ular bilan birga 70 nafar erkak.

Ezra Ma’badda xizmat qilish uchun levilarni chaqirtiradi

15 Men ularni Ohabo shahriga* oqib boradigan daryo bo‘yida to‘pladim. O‘sha joyda
biz uch kun turdik. Men to‘planganlarni sinchiklab ko‘rib chiqdim, ularning orasida
ruhoniylarni topdim, lekin levilar yo‘q edi. 16 Keyin yo‘lboshchilar Eliazarni, Oriyolni,
Shamayoni, Elnatanni, Yorivni, Elnatanni, Natanni, Zakariyoni, Mashullomni hamda
Tavrot ustozlari Yo‘xariv va Elnatanni chaqirtirdim. 17 Ularni Kosifiyodagi* levilarning
yo‘lboshchisi Iddoning huzuriga jo‘natayotib, ularga shunday deb tayinladim: “Iddoning
huzuriga borgach, unga, uning sheriklariga, Kosifiyodagi Ma’bad xizmatkorlariga
aytinglar, Xudoning uyi uchun levilarni yuborishsin.” 18 Xudoyimizning marhamati bizga
yor bo‘lgani uchun, ular Sharaviyo degan layoqatli bir odamni, o‘g‘illari va qarindoshlari
bilan birga yubordilar. Sharaviyo Yoqub* o‘g‘li Levi naslining Maxli urug‘idan edi.
Kelganlar jami 18 nafar erkak edilar. 19 Shuningdek, Marori urug‘idan Xashaviyo va
Yeshayo o‘g‘illari va qarindoshlari bilan birga yuborilgan edi. Ular jami 20 nafar erkak
edilar. 20 Bulardan tashqari, 220 nafar Ma’bad xizmatkori ham yuborildi. Ularning
hammasi nomma–nom qayd etilgan. Bu xizmatkorlarning ajdodlarini shoh Dovud va
uning a’yonlari levilarga yordam berish uchun tayinlagan edilar.

Ezra ro‘za e’lon qiladi

21 Xudodan: “Bizni, bolalarimizni va butun mol–mulkimizni safarda saqlagin”, deb
so‘rab, toat–ibodat qilishimiz uchun men Ohabo daryosi bo‘yida ro‘za e’lon qildim.
22 Shohdan: “Bizni yo‘lda dushmandan himoya qilish uchun bir guruh sipoh va otliqlar
bering”, deb so‘rashga xijolat bo‘lardim. Chunki biz shohga: “Xudoyimiz Unga yuz
burganlarning hammasiga marhamat qiladi, lekin Undan yuz o‘girganlarga g‘azabini
sochadi”, deb aytgan edik. 23 Shunday qilib, biz ro‘za tutdik va Xudoyimizga, bizni
saqlagin, deb iltijo qildik. Xudoyimiz bizning iltijolarimizni eshitdi.

Ma’bad uchun hadyalar

24 So‘ngra men bosh ruhoniylarning orasidan o‘n ikkita ruhoniyni — Sharaviyoni,
Xashaviyoni va ularning qarindoshlaridan o‘ntasini tanlab oldim. 25 Xudoyimizning uyi
uchun nazr qilingan kumush, oltin va buyumlarni ularning huzurida tarozida tortdim.
Shoh, uning maslahatchilari, a’yonlari, Bobil viloyatidagi butun Isroil xalqi nazr qilgan
bu hadyalarni ularga topshirdim. 26 Men ularga topshirgan nazrlarning miqdori
quyidagicha edi:

1400 pud* kumush,
200 pud* kumush buyum,
200 pud oltin,
27 yarim pud* chiqadigan 20 ta oltin kosa,
qiymati oltinga teng bo‘lgan, sayqallangan a’lo sifatli 2 ta bronza buyum.

28 Men ularga shunday dedim: “Sizlar Egamizga bag‘ishlangansizlar, buyumlar ham
Egamizga bag‘ishlangan. Bu kumush va oltinlar ota–bobolarimizning Xudosi —
Egamizga chin ko‘ngildan nazr qilingan. 29 Sizlar bu nazrlarni Quddusga olib
borgunlaringizgacha ehtiyot qilib saqlanglar. So‘ng bularni Egamizning uyi omborida
bosh ruhoniylar, levilar va urug‘boshilar huzurida tarozida tortinglar.”

30 Shunday qilib, ruhoniylar va levilar tarozida tortilgan bu kumush, oltin va
buyumlarni Xudoyimizning Quddusdagi uyiga olib borish uchun qabul qilib oldilar.

Quddusga safar

31 Birinchi oyning* o‘n ikkinchi kuni biz Ohabo daryosi bo‘yidan Quddus tomon
yo‘lga tushdik. Xudoyimiz bizga yor edi. Yo‘lda ketayotganimizda, U bizni dushman
hujumidan va qaroqchilardan himoya qildi. 32 Biz Quddusga yetib kelib, u yerda uch kun
turdik. 33 To‘rtinchi kuni esa kumush, oltin va buyumlarni Xudoyimizning uyida tarozida
tortib, Uriyo o‘g‘li ruhoniy Miromo‘tga topshirdik. Uning yonida Finxaz o‘g‘li ruhoniy
Elazar, shuningdek, levilardan Yeshuva o‘g‘li Yo‘zabad va Binnuy o‘g‘li Novadiyo bor
edilar. 34 O‘sha kuni biz hamma narsani tarozida tortib, hisoblab chiqdik, har bir
narsaning vaznini yozib qo‘ydik.
35 Shundan so‘ng surgundan qaytib kelganlar Isroil xalqining Xudosiga qurbonliklar
keltirdilar. Ular butun Isroil xalqi uchun 12 ta buqani, 96 ta qo‘chqorni, 77 ta qo‘zini
Egamizga qurbonlik qilib kuydirdilar. Bulardan tashqari, xalqni gunohlaridan poklash
uchun 12 ta takani qurbonlik qildilar. 36 So‘ng shohning farmonini Furot daryosining
g‘arbidagi viloyat* noiblariga va hokimlariga olib bordilar. Noiblar bilan hokimlar
xalqqa va Xudoning uyiga yordam ko‘rsatdilar.

9–BOB

Isroil xalqining xiyonati

1 Shu voqealardan keyin Isroil xalqining yo‘lboshchilari mening* oldimga kelib,
shunday deyishdi: “Surgundan qaytgan Isroil xalqining ko‘pchiligi, hatto ba’zi
ruhoniylar bilan levilar mahalliy xalqlardan o‘zlarini saqlamadilar. Ular Kan’on, Xet,
Pariz, Yobus, Ommon, Mo‘ab, Misr va Amor xalqlarining jirkanch odatlarini o‘zlashtirib
oldilar. 2 Yahudiy erkaklarining ba’zilari o‘sha xalqlarning qizlariga uylandilar,
o‘g‘illariga ham o‘sha xalqlarning qizlaridan olib berdilar. Shu tariqa muqaddas xalq
yurtdagi boshqa xalqlar bilan chatishib ketdi. Bu xiyonatni yo‘lboshchilar bilan
amaldorlar boshlab berishdi.” 3 Men bu gaplarni eshitganimda qayg‘udan ko‘ylagim va
ridoimni yirtib tashladim, soch–soqolimni yuldim. Qattiq iztirobda qoldim. 4 Surgundan
qaytganlarning bu xiyonati dastidan Isroil Xudosining so‘zlaridan qo‘rqadigan hamma
odamlar mening atrofimga to‘plandilar. Men esa kechki qurbonlik nazr qilinadigan
paytgacha iztirob chekib o‘tiraverdim.

Ezra iltijo qiladi

5 Kechki qurbonlik paytida men hamon iztirob chekkanimcha o‘tirgan o‘rnimdan
turdim. Ko‘ylaklarim va ridoim yirtilgan holatda tiz cho‘kdim. Egam Xudoga qo‘llarimni
cho‘zib, 6 yolvordim:

> “Ey Xudoyim! Qattiq xijolatdaman, huzuringda boshimni ko‘tarishga
> botinolmayman. Ey Xudoyim! Ayblarimiz boshimizdan ham oshib ketgan,
> gunohlarimiz tog‘day uyilib, osmonu falakka yetgan. 7 Ota–bobolarimiz davridan
> shu kungacha biz gunohga botib keldik. Ayblarimiz tufayli Sen bizni,
> shohlarimizni, ruhoniylarimizni boshqa yurtlarning shohlariga mag‘lub qilding.
> Ular bizni o‘ldirishdi, talon–taroj qilishdi, asir qilib olib ketishdi, xuddi

hozirgiday, biz sharmandali ahvolga tushdik.
8 Endi esa, ey Egamiz Xudo, Sen qisqa vaqt davomida bizga shafqatingni
ko‘rsatib, bizni omon saqlading, muqaddas maskaning oldiga joylashtirding.
Bizga umid berding, qulligimizda* ozgina bo‘lsa ham, halovat ato qilding. 9 Ey
Xudoyimiz, biz qul bo‘lsak ham, Sen bizni tark etmading. Bizga marhamat
ko‘rsatib, Fors shohining iltifotiga sazovor qilding. Bizga yangi hayot ato qilding,
uyingni qayta qurishimizga, uni tiklashimizga imkoniyat berding, Yahudo yurtida
va Quddusda bexatar yashashimizga imkoniyat yaratding.
10 Ey Xudoyimiz, endi nima ham derdik?! Bularning hammasidan keyin ham
biz amrlaringga rioya qilmadik. 11 Sen payg‘ambar qullaring orqali shunday amr
bergan eding: «Sizlar egalik qilish uchun kirayotgan bu yurt mahalliy xalqlarning
butparast udumlari tufayli harom bo‘lgan. Xalqlar jirkanch odatlari bilan butun
yurtni u boshidan bu boshigacha bulg‘adilar. 12 Shuning uchun ularga qiz
uzatmanglar, o‘g‘illaringizga ularning qizlarini olib bermanglar. Ularga hech
qachon tinchlik va farovonlikni ravo ko‘rmanglar. Shundagina sizlar kuchli
bo‘lasizlar, yurtning a’lo hosilidan yeb, rohatlanasizlar, bu yurtni bolalaringizga
abadiy meros qilib qoldirasizlar.»
13 Qabih ishlarimiz, o‘zlarimizning ayblarimiz boshimizga tushgan hamma
ko‘rgiliklarga sabab bo‘ldi. Aslida, ey Xudoyim, Sen bizni gunohlarimiz uchun
yanada ko‘p jazolashing kerak edi, lekin unday qilmading, ayrimlarimizni omon
saqlading. Mana shulardan keyin ham 14 biz amrlaringni buzdik. Jirkanch
odatlarga mukkasidan ketgan xalqlar bilan quda–andachilik qildik! Endi Sen
bizdan g‘azablanib, birontamizni ham tirik qoldirmay qirib tashlashing aniq!
15 Ey Isroil xalqining Xudosi — Egamiz, Sen adolatlisan. Shunga qaramay, shu
kungacha Sen bizni asrab kelding. Sening oldingda turishga haqimiz yo‘q, lekin
mana, ayblarimiz bilan oldingda turibmiz.”

10–BOB

Xalq gunohi uchun tavba qiladi

1 Ezra Xudoning uyi oldida o‘zini yerga otib yig‘laganicha, xalqning gunohlarini
e’tirof etdi. U Xudoga iltijo qilayotganda, atrofiga Isroildan katta jamoa — erkagu ayol,
bolalar yig‘ilishdi. Xalq ham achchiq–achchiq yig‘lardi. 2 Elam naslidan Yoxiyol o‘g‘li
Shaxaniyo Ezraga shunday deya murojaat qildi: “Biz mahalliy xalqlarning butparast
ayollariga uylanib, Xudoyimizga xiyonat qildik. Lekin shunga qaramay, biz — Isroil xalqi
uchun hali ham umid bor! 3 Keling, Xudoyimiz bilan ahd qilaylik. Hazratim, sizning
maslahatingizga ko‘ra va Xudoyimizning so‘zlaridan qo‘rqadiganlarning maslahatiga
ko‘ra, barcha butparast xotinlarni bolalari bilan birga qo‘yib yuboraylik. Xudoning
qonuniga amal qilaylik. 4 Qani hazratim, ishga kirishing, bu sizning burchingizdir. Biz siz
bilanmiz. Dadil bo‘ling, ishni boshlang.”
5 Shunda Ezra o‘rnidan turib, ruhoniylarning, levilarning va butun Isroil xalqining
boshliqlariga, aytilganlarni qilamiz, deb ont ichirdi. Hammalari ont ichdilar. 6 So‘ng Ezra
Xudoning uyi oldidan ketib, Eliashab o‘g‘li Yohuxanonning xonasiga bordi, tunni o‘sha
yerda o‘tkazdi. U* na non yedi, na suv ichdi, surgundan qaytganlarning xiyonatkorligi
dastidan qayg‘urayotgan edi.

7 “Surgundan qaytganlarning hammasi Quddusga to‘plansin”, deb Yahudo yurti va
Quddus bo‘ylab jar solindi. 8 “Agar kimki uch kun ichida kelmasa, yo‘lboshchilarning va
oqsoqollarning buyrug‘iga ko‘ra, ularning hamma mol–mulki musodara qilinsin, o‘zlari
surgundan qaytganlar jamoasidan chiqarilsin”, deb xabar berildi.
9 Uch kun ichida Yahudo va Benyamin hududida yashayotganlarning hammasi
Quddusda to‘plandi. Bu voqea to‘qqizinchi oyning* yigirmanchi kunida ro‘y berdi.
Odamlar Xudoning uyi oldidagi hovlida joylashib o‘tirdi. Ahvolning jiddiyligidan va
kuchli yomg‘ir yog‘ayotganidan xalq titrardi. 10 Ruhoniy Ezra o‘rnidan turib, xalqqa dedi:
“Sizlar butparast ayollarga uylanib, Egamizga xiyonat qildingizlar, Isroil xalqining
ayblari ustiga ayb orttirdingizlar. 11 Endi ota–bobolaringizning Xudosi — Egamiz oldida
bu gunohlaringizni tan olinglar, Uning xohishi bo‘yicha ish tutinglar. O‘zlaringizni
mahalliy xalqlardan ayirib, butparast xotinlaringizni qo‘yib yuboringlar.” 12 Shundan
keyin butun jamoa baland ovoz bilan javob berdi: “Siz haqsiz! Aytganlaringizni qilamiz.
13 Lekin xalq ko‘p, yomg‘ir ham yog‘yapti, shuning uchun ochiq joyda tura olmaymiz.
Oramizdagi ko‘pchilik bu gunohga qo‘l urgan, shuning uchun bu masalani bir–ikki
kunda hal qilib bo‘lmaydi. 14 Mayli, yo‘lboshchilarimiz Quddusda qolsinlar, ular bu
ishning mas’uliyatini o‘z zimmalariga olsinlar. Butparast ayollarga uylanganlarning
hammasi belgilangan vaqtda o‘z shahar oqsoqoli va hakami bilan birga kelishsin. Bu
qilmishimizdan g‘azablangan Xudo shunda g‘azabidan tushadi.” 15 Faqat Osoyil o‘g‘li
Yo‘natan bilan Tixvo o‘g‘li Yaxziyo bu taklifga qarshi chiqdilar, levilardan Mashullom va
Shabbatay ham ularni qo‘llab–quvvatladilar.
16 Shunday qilib, surgundan qaytganlar berilgan taklifni qabul qildilar. Ruhoniy Ezra
urug‘boshilar orasidan odamlarni tayinlab, ularning ismlarini yozib qo‘ydi. O‘ninchi
oyning* birinchi kuni ular bu ishni tekshirishga kirishdilar. 17 Birinchi oyning* birinchi
kuniga kelib, butparast ayollarga uylangan barcha erkaklar bilan bog‘liq bo‘lgan masala
ko‘rib chiqildi.

Butparast ayollarga uylanganlarning ro‘yxati

18 Butparast ayollarga uylangan odamlar quyidagilardir:

Ruhoniylardan:

Yohuzadax* o‘g‘li Yoshuaning urug‘idan va uning hamkorlaridan — Masiyo,
Eliazar, Yoriv va Gadaliyo. 19 Ular xotinlarini qo‘yib yuborishga ont ichdilar va
ayblari uchun bitta qo‘chqorni ayb qurbonligi qildilar.
20 Immar urug‘idan — Xonin va Zabadiyo.
21 Xarim urug‘idan — Masiyo, Ilyos, Shamayo, Yoxiyol va Uzziyo.
22 Pashxur urug‘idan — Eliyo‘nay, Masiyo, Ismoil, Natanil, Yo‘zabad va Elasax.

23 Levilardan:

Yo‘zabad, Shimax, Kilayox (Kilit deb ham aytiladi), Patixiyo, Yahudo va Eliazar.

24 Qo‘shiqchilardan:

Eliashab.

Ma’bad darvozabonlaridan:

Shallum, Talim va Uri.

25 Isroil xalqining qolganlaridan:

Paroʻsh urugʻidan — Romiyo, Yiziyo, Malkiyo, Miyomin, Elazar, Malkiyo va Binayo.
26 Elam urugʻidan — Mattaniyo, Zakariyo, Yoxiyol, Abdi, Yorimoʻt va Ilyos.
27 Zattu urugʻidan — Eliyoʻnay, Eliashab, Mattaniyo, Yorimoʻt, Zabad va Azizax.
28 Boʻvay urugʻidan — Yohuxanon, Xanoniyo, Zabbay va Otley.
29 Banix urugʻidan — Mashullom, Mallux, Odayo, Yoshuv, Shayol va Yorimoʻt.
30 Paxatmoʻab urugʻidan — Adna, Xilol, Binayo, Masiyo, Mattaniyo, Bazalil, Binnuy va Manashe.
31 Xarim urugʻidan — Eliazar, Ishshiyo, Malkiyo, Shamayo, Shimoʻn, 32 Benyamin, Mallux, Shamariyo.
33 Xashum urugʻidan — Mattanay, Mattatax, Zabad, Elifalet, Yorimay, Manashe va Shimax.
34 Banix urugʻidan — Maday, Imrom, Uval, 35 Binayo, Bidayo, Xalux, 36 Vaniyo, Miromoʻt, Eliashab, 37 Mattaniyo, Mattanay va Yasoy.
38 Binnuy urugʻidan — Shimax*, 39 Shalamiyo, Natan, Odayo, 40 Maxnadbay, Shoshay, Shoroy, 41 Ozariyol, Shalamiyo, Shamariyo, 42 Shallum, Emoriyo va Yusuf.
43 Navo urugʻidan — Yaviyol, Mattitiyo, Zabad, Zabino, Yadday, Yoʻel va Binayo.

44 Yuqoridagilarning hammasi butparast ayollarga uylangan edilar. Oʻsha ayollardan ayrimlari ularga farzandlar ham tugʻib bergan edilar*.

IZOHLAR

Fors shohi Kurush — Kir ismi bilan ham tanilgan. Miloddan oldingi 539 yilda Midiya va Fors lashkarlari shoh Kurush boshchiligida Bobilni bosib olishdi. Shoh Kurush miloddan oldingi 530 yilgacha Bobilda hukmronlik qildi.

shoh Artaxshas — Artakserks ismi bilan ham tanilgan bo‘lib, miloddan oldingi 465-424 yillarda hukmronlik qilgan.

1:1 *Kurush hukmronligining birinchi yili* — miloddan oldingi 538 yil. Midiya va Fors lashkarlari shoh Kurush boshchiligida Bobil shahrini miloddan oldingi 539 yilda bosib olgan edilar. Shoh Kurush miloddan oldingi 530 yilgacha Bobilda hukmronlik qildi. U Kir ismi bilan ham tanilgan.

1:1 *Egamizning Yeremiyo orqali bildirgan so‘zlari* — Yeremiyo 25:11, 29:10 ga qarang.

1:7 *Bu buyumlarni shoh Navuxadnazar Quddusdan olib kelib…* — 4 Shohlar 25:13-15 ga qarang. Navuxadnazar miloddan oldingi 605-562 yillarda Bobilda hukmronlik qilgan. Miloddan oldingi 586 yilda u Quddusni vayron qilib, aholining asosiy qismini Bobilga surgun qilgan edi (4 Shohlar 25:1-21 ga qarang).

1:7 *xudolari* — yoki *xudosi*.

1:8 *Yahudo yo‘lboshchisi* — ibroniycha matnda *Yahudo shahzodasi*, Shashbazzar o‘z xalqining e’tiborlik yo‘lboshchisi bo‘lgani uchun unga nisbatan mana shu unvon ishlatilgan. U shohlar sulolasidan emas edi. Shashbazzar shoh Kurush tomonidan Yahudo hokimi qilib tayinlangandi (5:13-14 ga qarang).

1:9 *boshqa idishlar* — yoki *pichoqlar*.

1:11 *5400* — shu bobning 9-10–oyatlarida ro‘yxati berilgan buyumlarning umumiy soni 5400 ta emas, balki 2499 ta. 9-10–oyatlarda faqat eng muhim buyumlarning ro‘yxati keltirilgan bo‘lishi mumkin, umumiy songa esa hamma buyumlarning soni kiritilgan.

2:1-2 *Bobil shohi Navuxadnazar asir qilib olib ketgan yahudiylar* — 1:7 ning birinchi izohiga qarang.

2:1-2 *Sarayo* — Naximiyo 7:6-7 ning ibroniycha matnida bu ismning boshqa varianti *Ozariyo*. Shu bobning 1-60–oyatlarida keltirilgan ro‘yxatdagi ba’zi ismlar Naximiyo kitobining 7:6-62 ro‘yxatidagi ismlardan bir oz farq qiladi.

2:42 *Ma’bad darvozabonlari* — ularning vazifalari tafsiloti 1 Solnomalar 9:22-29 da berilgan.

2:55 *Sulaymon qarollari* — 3 Shohlar 9:20-21 va 2 Solnomalar 8:7-8 ga qarang.

2:63 *Yahudo hokimi* — bu o‘rinda qaysi Yahudo hokimi haqida gap ketayotgani aniq emas. Bu paytda Zarubabel hokimlik qilgan, deb taxmin qilish mumkin (shu bobning 1-2–oyatlari, 3:2, 4:2 va Xaggey 2:2, 21 ga qarang).

2:63 *Urim va Tummim* — ayrim hollarda ruhoniylar Xudoning xohishini bilish uchun foydalanadigan ikkita muqaddas narsa. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun Chiqish 28:15 ning ikkinchi izohiga qarang.

2:64 *42.360 kishi* — shu bobning 3-60–oyatlarida ro‘yxati berilgan odamlarning jami

42.360 ta emas, balki 29.818 ta. Oyatda qaytib kelgan odamlarning umumiy soni berilgan, roʻyxatga esa Yahudo yurtiga qaytib kelgan baʼzi odamlargina kiritilgan boʻlishi mumkin.

2:69 *61.000 oltin tanga* — ibroniycha matnda *61.000 oltin darik*. Darik oltin tanga boʻlib, taxminan 8 grammga toʻgʻri keladi, demak, berilgan oltinning umumiy ogʻirligi taxminan 500 kiloga toʻgʻri keladi.

2:69 *190 pud* — ibroniycha matnda *5000 mina*, taxminan 3 tonnaga toʻgʻri keladi.

2:70 *…Quddusga…borib joylashdilar* — ibroniycha matndan soʻzma–soʻz tarjimasi *…oʻz shaharlariga oʻrnashdilar, butun Isroil xalqi ham oʻz shaharlariga oʻrnashdi*. Shu bobning 1-2–oyatlariga qarang.

3:1 *yettinchi oy* — ibroniy kalendarining Tishri oyi nazarda tutilgan (Tishri oyi Itanim oyi deb ham ataladi). Hozirgi kalendarga koʻra, bu oy taxminan sentabrning oʻrtasidan boshlanadi.

3:1 *…yettinchi oyda hammasi Quddusda yigʻilishdi* — bu oʻrinda miloddan avvalgi 538 yil, Kurush Bobilda hukmronlik qilishni boshlagan yil haqida gap ketayotgan boʻlishi mumkin (1:1 ga va oʻsha oyatning birinchi izohiga qarang).

3:2 *Yohuzadax* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Yoʻzadax* (shu bobning 8–oyatida ham bor).

3:2 *Shaltiyol oʻgʻli Zarubabel* — 1 Solnomalar 3:17-19 ga koʻra, Zarubabel Shaltiyolning ukasi Podiyoning oʻgʻli edi. Shaltiyol va Podiyo surgun qilingan Yahudo shohi Yohayxinning oʻgʻillari boʻlib, Shaltiyol toʻngʻich farzand edi (4 Shohlar 24:8-17 ga qarang). Shaltiyolning oʻgʻli boʻlmaganiga ikki taxmin mavjud: u befarzand edi yoki farzandlari boʻlgan–u, ammo hammasi halok boʻlgan. Sababi nima boʻlishidan qatʼi nazar, shoh sulolasi Podiyo orqali davom etgan. Matndagi “Shaltiyol oʻgʻli” iborasi Zarubabel shoh Yohayxinning haqqoniy taxt vorisi ekanligini koʻrsatadi.

3:4 *Chayla bayrami* — yettinchi oyning oʻn beshinchi kunidan boshlab yetti kun davomida nishonlangan (Levilar 23:33-43 ga qarang).

3:7 *Fors shohi Kurush* — 1:1 ning birinchi izohiga qarang.

3:7 *Yaffa shahri* — Oʻrta yer dengizi boʻyida joylashgan boʻlib, Quddus uchun bandargoh vazifasini oʻtagan. Toʻliqroq maʼlumotga ega boʻlish uchun lugʻatdagi BANDARGOH soʻziga qarang.

3:7 *Sidonliklar va Tirliklar* — Sidon va Tir Finikiyada muhim ahamiyatga ega boʻlgan shaharlar. Bu shaharlar Isroildan shimolda, Oʻrta yer dengizi boʻyida joylashgan edi. Bugungi kunda bu yer Livan mamlakatining janubiy qismini tashkil qiladi.

3:8 *ikki oy* — ibroniy kalendarining ikkinchi oyi, Ziv oyi nazarda tutilgan. Hozirgi kalendarga koʻra, bu oy taxminan aprelning oʻrtasidan boshlanadi. Shoh Sulaymon Maʼbadni aynan shu oyda qurishni boshlagan edi (3 Shohlar 6:1 ga qarang).

3:9 *Xoʻdaviyo* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Yahudo*. Uning Xoʻdaviyo degan shakli 2:40 dan olingan.

4:2 *Ossuriya shohi Isarxaddoʻn* — miloddan oldingi 681-669 yillarda Ossuriyada hukmronlik qilgan. Bu parchada aytib oʻtilgan odamlar mazkur hududga miloddan

oldingi 677 yoki 676 yilda, Isarxaddo‘n Suriyani bosib olganda olib kelingan bo‘lishlari mumkin. Ossuriya shohlari turli xalqlarni Samariya yerlariga ko‘chirtirib kelib o‘rnashtirganlar (4 Shohlar 17:24-34 ga qarang). Bu xalqlar ham Xudoga, ham butlarga sig‘inganlar.

4:3 *Fors shohi Kurush* — 1:1 ning birinchi izohiga qarang.

4:5 *…Fors shohi Kurushning butun hukmronligi davomida…to Doro taxtni egallab, Fors shohi bo‘lgunga qadar…* — Kurush miloddan oldingi 539-530 yillarda, Doro miloddan oldingi 522-486 yillarda hukmronlik qilgan. Shu bobning 24–oyati 1-5–oyatlarning davomidir. 6-23–oyatlarda tasvirlangan voqea ancha keyin sodir bo‘lgan. Bu voqea Ezra Quddusga qaytib kelganiga taxminan 13 yil bo‘lganda ro‘y bergan edi. O‘sha paytda Naximiyo hali Quddusga qaytib kelmagan bo‘lishi mumkin.

4:6 *Bir necha yildan keyin…* — shu bobning 5–oyati izohiga qarang.

4:6 *shoh Axashverash* — Kserks ismi bilan ham tanilgan bo‘lib, miloddan oldingi 486-465 yillarda hukmronlik qilgan.

4:7 *Fors shohi Artaxshas* — Artakserks ismi bilan ham tanilgan bo‘lib, miloddan oldingi 465-424 yillarda hukmronlik qilgan.

4:7 *oramiycha* — asl matnning 4:8 dan 6:18 gacha bo‘lgan qismi ibroniy tilida emas, oramiy tilida yozilgan.

4:7 *…tarjima qilindi* — fors tiliga bo‘lishi mumkin.

4:10 *Samariya* — poytaxtning nomi bo‘lib, sobiq Isroilga, ya’ni shimoliy shohlikka nisbatan ishlatilgan.

4:10 *Furot daryosining g‘arbidagi viloyat* — Fors shohligiga qarashli bo‘lgan katta bir viloyat. Bu viloyat Furot daryosi bilan O‘rta yer dengizi oralig‘ida joylashgan bo‘lib, Yahudo yurtini ham o‘z ichiga olgan edi.

4:10 *…shoh O‘snapar…olib kelib o‘rnashtirgan turli xalqlardan…* — shoh O‘snapar yana Ashshurbanapal ismi bilan tanilgan bo‘lib, Isarxaddo‘nning o‘g‘li edi (shu bobning 2–oyatiga qarang). O‘snapar miloddan oldingi 669-626 yillarda Ossuriyada hukmronlik qilgan. Ossuriya shohlari turli xalqlarni Samariya yerlariga ko‘chirtirib kelib o‘rnashtirganlar (4 Shohlar 17:24-34 ga qarang).

4:24 *Fors shohi Doro hukmronligining ikkinchi yiligacha…* — miloddan oldingi 520 yil. Doro miloddan oldingi 522-486 yillarda hukmronlik qilgan.

5:2 *Shaltiyol o‘g‘li Zarubabel* — 3:2 ning ikkinchi izohiga qarang.

5:2 *Yohuzadax* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Yo‘zadax*.

5:3 *Furot daryosining g‘arbidagi viloyat* — 4:10 ning ikkinchi izohiga qarang.

5:4 *Binoni qurayotgan odamlarning ismlarini aytishni talab qilishdi* — yoki *Yahudiy oqsoqollari ularga binoni qurayotgan odamlarning ismlarini aytib berishdi*.

5:5 *shoh Doro* — 4:24 izohiga qarang.

5:11 *…Xudoning bu uyi…Isroilning ulug‘ bir shohi tomonidan qurib bitkazilgan edi* — miloddan oldingi 960-953 yillarda shoh Sulaymon Quddusdagi Ma’badni qurdirgan edi (3 Shohlar 6:1, 38 oyatlarga va 3 Shohlar 6:1 ning birinchi izohiga qarang).

5:12 *...Xudo ularni...Navuxadnazarning qo‘liga berdi* — 1:7 ning birinchi izohiga qarang.

5:13-14 *Bobil shohi Kurush* — forslar Bobil shohligini bosib olganlari uchun, Fors shohi Kurushni Bobil shohi Kurush deb ham atashardi. 1:1 ga va o‘sha oyatning birinchi izohiga qarang.

5:13-14 *Yahudoning hokimi* — 1:8 izohiga qarang.

5:16 *...Shashbazzar kelib, Xudoning Quddusdagi uyi poydevorini yotqizdirdi* — aslida bu ish bevosita Zarubabel boshchiligida amalga oshirilgan edi (3:8-11 ga va Zakariyo 4:9 ga qarang). Lekin yahudiy oqsoqollari, Ma’bad poydevorini Shashbazzar yotqizgan, deb aytishardi. Chunki shoh Kurush Shashbazzarni Yahudo hokimi qilib tayinlagan edi (shu bobning 14–oyatiga qarang). Bu ish rasman Shashbazzar hokimiyati ostida bajarilgan edi.

6:1 *shoh Doro* — 4:24 izohiga qarang.

6:2 *o‘rama qog‘oz* — papirus yoki oshlangan teridan qilingan uzun o‘ralgan qog‘oz. Qadimgi paytlarda kitoblar odatda o‘rama qog‘oz shaklida bo‘lgan.

6:3 *Shoh Kurush* — 1:1 ning birinchi izohiga qarang.

6:3 *oltmish tirsak* — taxminan 27 metrga to‘g‘ri keladi.

6:5 *...Navuxadnazar...Bobilga olib kelgan Xudoning uyiga tegishli buyumlar...* — 1:7 ning birinchi izohiga qarang.

6:6 *Furot daryosining g‘arbidagi viloyat* — 4:10 ning ikkinchi izohiga qarang.

6:14 *Artaxshas* — 4:7 ning birinchi izohiga qarang. Artaxshas Ma’bad qayta qurilgandan keyin hukmronlik qilgan (shu bobning 15–oyatiga qarang). Ammo u Ezra davrida Ma’bad ehtiyojlari va sajda marosimlari uchun mablag‘ ajratib, rasmiy yordam ko‘rsatgani sababli uni bu oyatdagi shohlar ro‘yxatiga qo‘shishgan bo‘lishi mumkin (7:11-26 ga qarang).

6:15 *Adar oyi* — ibroniy kalendarining o‘n ikkinchi oyi. Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan fevralning o‘rtasidan boshlanadi.

6:15 *shoh Doro hukmronligining oltinchi yili* — miloddan oldingi 515 yil.

6:17 *gunoh qurbonligi* — birortasi bilmay qilgan gunohi uchun Xudodan kechirim so‘rab keltirgan qurbonligi. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi QURBONLIK so‘zi ostida berilgan GUNOH QURBONLIGI iborasiga qarang.

6:19 *birinchi oy* — miloddan oldingi 515 yilning birinchi oyi (shu bobning 15–oyatiga berilgan ikkinchi izohga qarang). Ibroniy kalendarining Nison oyi nazarda tutilgan (Nison oyi Abib oyi deb ham ataladi). Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan martning o‘rtasidan boshlanadi.

6:22 *Ossuriya shohi* — Fors shohi Doro nazarda tutilgan. Forslar Bobil shohligini zabt etgan edilar. Ossuriya shohligi Bobil shohligi tarkibida bo‘lgani uchun, bu oyatda shoh Doro Ossuriya shohi deb atalgan.

7:1 *ko‘p yillar* — taxminan 60 yil.

7:1 *Fors shohi Artaxshas* — 4:7 ning birinchi izohiga qarang.

7:1 *...o‘g‘li...* — bu o‘rindagi ibroniycha so‘z *avlodi* degan ma’noni ham berishi mumkin.

Odatda Muqaddas Kitobda berilgan nasabnomalarda hamma nasllarning to‘liq ro‘yxati berilmay, faqat ma’lum bir avlodning ma’lum bir ajdoddan kelib chiqqani ko‘rsatiladi.

7:6-7 *Shoh Artaxshas hukmronligining yettinchi yili* — miloddan oldingi 458 yil. 4:7 ning birinchi izohiga qarang.

7:8-9 *Birinchi oy* — ibroniy kalendarining Nison oyi nazarda tutilgan (Nison oyi Abib oyi deb ham ataladi). Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan martning o‘rtasidan boshlanadi.

7:8-9 *beshinchi oy* — ibroniy kalendarining Av oyi nazarda tutilgan. Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan iyulning o‘rtasidan boshlanadi.

7:21 *Furot daryosining g‘arbidagi viloyat* — 4:10 ning ikkinchi izohiga qarang.

7:22 *200 pud* — oramiycha matnda *100 talant*, taxminan 3,4 tonnaga to‘g‘ri keladi.

7:22 *1000 tog‘ora* — oramiycha matnda *100 kor*, taxminan 22 tonnaga to‘g‘ri keladi.

7:22 *200 ko‘za* — oramiycha matnda *100 bat*, taxminan 2200 litrga to‘g‘ri keladi (shu oyatning davomida ham bor).

7:28 *men* — 7:27-9:15 dagi hamma voqealar Ezra nomidan, ya’ni birinchi shaxs tilidan hikoya qilinadi.

8:1 *Shoh Artaxshas* — 4:7 ning birinchi izohiga qarang.

8:1 *men* — ya’ni Ezra (7:28 izohiga qarang).

8:5 *Zattu urug‘idan — Yaxaziyol o‘g‘li Shaxaniyo…* — qadimiy yunoncha tarjimadan (yana 2:8 ga qarang). Ibroniycha matnda *Shaxaniyo urug‘idan — Yaxaziyol o‘g‘li….*

8:10 *Banix urug‘idan — Yo‘sifiyo o‘g‘li Shalumit…* — qadimiy yunoncha tarjimadan (yana 2:10 ga qarang). Ibroniycha matnda *Shalumit urug‘idan — Yo‘sifiyo o‘g‘li….*

8:13 *Elifalet, Yaviyol va Shamayo…eng oxirgi bo‘lib qaytib keldilar* — yoki *Ular keyinroq qaytib keldilar*.

8:15 *Ohabo shahri* — Bobil yurtida joylashgan.

8:17 *Kosifiyo* — bu yer aynan qayerda joylashgani ma’lum emas. Surgundagi yahudiylar Kosifiyoda yashashgan va u yerda o‘zlariga sajdagoh barpo qilgan bo‘lishlari mumkin.

8:18 *Yoqub* — ibroniycha matnda *Isroil*, Yoqubning yana bir ismi (Ibtido 32:27-28 ga qarang).

8:26 *1400 pud* — ibroniycha matnda *650 talant*, taxminan 22 tonnaga to‘g‘ri keladi.

8:26 *200 pud* — ibroniycha matnda *100 talant*, taxminan 3,4 tonnaga to‘g‘ri keladi (shu oyatning davomida ham bor).

8:27 *yarim pud* — ibroniycha matnda *1000 darik*, taxminan 8,5 kiloga to‘g‘ri keladi.

8:31 *Birinchi oy* — miloddan oldingi 458 yilning birinchi oyi. 7:6-9 ga va o‘sha oyatlarning izohlariga qarang.

8:36 *Furot daryosining g‘arbidagi viloyat* — 4:10 ning ikkinchi izohiga qarang.

9:1 *men* — ya’ni Ezra (7:28 izohiga qarang).

9:8 *qulligimiz* — ular hamon boshqa bir davlatga qaram bo‘lgani nazarda tutilgan.

10:6 *…Yohuxanonning xonasiga bordi, tunni o‘sha yerda o‘tkazdi. U…* — yoki *…Yohuxanonning xonasiga ketdi. O‘sha yerda bo‘lganda….*

10:9 *to‘qqizinchi oy* — miloddan oldingi 458 yilning to‘qqizinchi oyi (7:6-7 ga va o‘sha oyatlarning izohiga qarang). Ibroniy kalendarining Xislav oyi nazarda tutilgan. Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan noyabrning o‘rtasidan boshlanadi.

10:16 *O‘ninchi oy* — miloddan oldingi 458 yilning o‘ninchi oyi (7:6-7 ga va o‘sha oyatlarning izohiga qarang). Ibroniy kalendarining Tabat oyi nazarda tutilgan. Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan dekabrning o‘rtasidan boshlanadi.

10:17 *birinchi oy* — ibroniy kalendarining Nison oyi nazarda tutilgan (Nison oyi Abib oyi deb ham ataladi). Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan martning o‘rtasidan boshlanadi.

10:18 *Yohuzadax* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Yo‘zadax*.

10:37-38 *…va Yasoy. [38] Binnuy urug‘idan — Shimax…* — qadimiy yunoncha tarjimadan. Ibroniycha matnda *…Yasoy, [38] Banix, Binnuy, Shimax….*

10:44 *O‘sha ayollardan ayrimlari ularga farzandlar ham tug‘ib bergan edilar* — yoki *Ular xotinlari bilan ajrashib, xotinlarini bolalari bilan birga jo‘natib yubordilar*.

NAXIMIYO

KITOBI

Kirish

Mazkur kitob Fors shohi saroyida xizmat qilgan yahudiy amaldori Naximiyo nomi bilan atalgan. Bu kitobda bayon qilingan voqealar Ezra kitobidagi voqealarning davomidir. Naximiyo Quddusga Ezradan 13 yil keyin, Fors shohi Artaxshas* hukmronligi davrida, miloddan oldingi 445 yilda qaytib keladi.

Naximiyo shohning Shushandagi qal'asida yashab yurgan paytda, Quddus devori vayron bo'lganini, darvozalari yondirilganini eshitib, qattiq qayg'uradi. U ibodat qilib, Xudodan: "Quddusga borishimga, shahar devorlarini qayta tiklashimga imkoniyat ber", deb so'raydi. Shoh Artaxshas Naximiyoni Quddusga jo'natadi, hatto shahar devorlarini ta'mirlash uchun kerakli ashyolarni ham beradi.

Naximiyo Quddusga yetib kelgandan keyin, shahar devorlarini ko'zdan ko'rib chiqadi. So'ng barcha yahudiylarni yig'ib, ta'mirlash ishlarini boshlab yuboradi. Lekin atrofdagi qo'shni xalqlar yahudiylarni haqorat qilishadi, Fors shohiga qarshi chiqqan isyonchilar deb ularga ayb qo'yishadi. Dushmanlar hatto Quddusga hujum qilib, Naximiyoni o'ldirishni ham rejalashtirishadi. Shuncha qiyinchiliklarga qaramay, Naximiyo va yahudiylar Quddus devori va darvozalarini qurib bitirib, Xudoga bag'ishlaydilar. Bularning hammasi Xudo O'z xalqiga ko'rsatgan marhamatining ifodasi bo'ladi.

Naximiyo kitobi Eski Ahdning tarixiy qismiga yakun yasaydi. Ezra va Naximiyo boshchiligida Isroil xalqi Xudo bilan tuzilgan ahdni yangilab, Unga sodiq qolishga va'da beradi. Mazkur kitob Xudoning sodiqligidan dalolat beradi. Fors shohining yordami bilan ta'mirlangan Quddus shahri asrlar davomida yahudiylarning sajda markazi bo'lib qolaveradi.

1–BOB

1 Quyidagilar Xaxaliyo o'g'li Naximiyoning xotiranomasidir*.

Naximiyo Quddus uchun qayg'uradi

Shoh Artaxshas hukmronligining yigirmanchi yilida*, Xislav oyida* men Shushandagi* qal'ada edim. 2 Shunda ukam* Xonin boshqa ba'zi odamlar bilan Yahudo yurtidan keldi. Men ulardan asirlikka olib ketilmagan va surgundan qaytib borgan yahudiylarning holini, shuningdek, Quddus shahrining ahvolini so'radim. 3 Ular shunday javob berdilar: "Viloyatdagi* asirlikka olib ketilmagan va surgundan qaytib borgan yahudiylar og'ir qayg'u, sharmandali ahvolda qolganlar: Quddusning devori vayron bo'lib ketgan, darvozalari yondirilgan."

4 Bu so'zlarni eshitganimda, o'tirib yig'ladim. Bir necha kun qayg'urib yurdim. Ro'za tutdim, Samoviy Xudoga iltijo qilib yurdim. Unga shunday deb yolvordim:

5 "Ey Samoviy Xudo — Egam! Sen buyuk va haybatli Xudosan. Seni sevib, amrlaringga rioya qilgan bandalaringga ahdingni sodiq saqlaysan. 6 Men,

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

qulingning ibodatlarini eshit, ahvolimga boq. Isroil xalqi uchun kechayu kunduz
qilgan iltijolarimni eshit. Axir, ular Sening qullaring–ku. Men xalqim qilgan
hamma gunohlarni e'tirof etaman. Men o'zim ham, xonadonim ham gunoh qildik.
7 Quling Muso orqali bergan amrlaringga, farmonlaringga, qonun–qoidalaringga
biz rioya qilmadik, Seni qattiq xafa qildik.
8 Yolvoraman, quling Musoga bergan va'dangni* yodingda tut. Axir, Sen
shunday degansan: «Agar sizlar Menga sodiq bo'lmasangizlar, Men sizlarni
xalqlar orasiga tarqatib yuboraman. 9 Lekin Menga yuz bursangizlar, amrlarimga
rioya qilib, ularni bajarsangizlar, Men sizlarni yig'ib olaman. Yerning eng chetiga
surgun qilingan bo'lsangiz ham, sizlarni o'sha joylardan yig'ib kelaman, Men
ulug'lanishim uchun tanlangan joyga sizlarni qaytarib olib kelaman.»
10 Biz Sening qullaringmiz, buyuk qudrating va ajoyibotlaring bilan O'zing
qutqargan xalqingmiz. 11 Yo Rabbiy! Bu qulingning iltijolarini eshit. Seni izzat–
hurmat qilishni xush ko'radigan hamma qullaringning iltijolariga quloq tut. Men,
qulingga bugun muvaffaqiyat ber, shoh Artaxshasda menga nisbatan shafqat
uyg'otgin."

O'sha paytlarda men shohning soqiysi* edim.

2–BOB

Naximiyo Quddusga boradi

1 Shoh Artaxshas hukmronligining yigirmanchi yili*, Nison oyi* edi. Bir kuni shohga
sharob keltirildi. Men sharobni olib kirib, unga uzatdim. Shoh qarshisida men hech
qachon g'amgin ahvolda bo'lmagandim. 2 Shuning uchun shoh mendan so'radi:
— Nega g'amgin ko'rinasan? Kasalga o'xshamaysan–ku! Yuragingda biror darding
bo'lsa kerak–a?
Men qattiq qo'rqib ketdim, 3 shunga qaramay shohga dedim:
— Shoh hazratlarining umrlari uzoq bo'lsin. Ota–bobolarimning qabrlari joylashgan
shahar tashlandiq bo'lib, o'sha shaharning darvozalari yondirib yuborilsa–yu, nega
g'amgin bo'lmayin?! 4 — Shoh mendan:
— Tilaging nima? — deb so'radi. Shunda men Samoviy Xudoga ibodat qilib, 5 shohga
shunday javob berdim:
— Agar shoh hazratlari ma'qul topsalar, bu qulingiz shoh hazratlaridan marhamat
topgan bo'lsa, meni Yahudo yurtiga — ota–bobolarimning qabrlari joylashgan shaharga
yuborsalar, deb iltimos qilmoqchi edim, toki men u shaharni qaytadan qurayin.
6 Malika ham shohning yonida o'tirgan edi. Shoh mendan:
— Qancha vaqt yo'l yurasan? Qachon qaytib kelasan? — deb so'radi. Men unga
qachon qaytib kelishimni aytdim. Shoh menga marhamat qilib, ijozat berdi. 7 So'ngra
men shohga yana dedim:
— Agar shoh hazratlari ma'qul deb topsalar, Furot daryosining g'arbidagi viloyat*
hokimlariga maktublar yozib berilsa, toki Yahudoga kirib borishim uchun ular menga
ijozat berishsin. 8 Yana shoh hazratlari o'rmon qorovuli Osifga ham maktub yozib, unga
ko'rsatmalar bersalar, u menga daraxtlar kesib bersin. Ma'bad yonidagi qal'a
darvozalari uchun, shahar devori va o'zim yashaydigan uy uchun kerak bo'ladigan

yog‘och bilan u meni ta’minlasin.

Men nima so‘ragan bo‘lsam, shoh hammasiga ijozat berdi, chunki Xudoyimning marhamati menga yor edi.

9 Shoh bir necha lashkarboshisini va otliq sipohlarini menga hamroh qilib jo‘natdi.
Men Furot daryosining g‘arbidagi viloyat hokimlari huzuriga borib, ularga shohning
maktublarini berdim. 10 Bayt–Xo‘ronlik Sanballat* va Ommonlik malay To‘viyo: “Isroil
xalqining manfaati uchun jon kuydiradigan bittasi kelibdi” degan gapni eshitib, g‘oyat
g‘azablandilar.

Naximiyo Quddus devorini ko‘zdan kechiradi

11 Shunday qilib, men Quddusga yetib keldim. Oradan uch kun o‘tgach, 12 tunda
o‘rnimdan turdim, yonimga bir nechta sheriklarimni olib, tashqariga chiqdim. Lekin
Quddus haqidagi Xudo ko‘nglimga solgan rejamni hech kimga aytmadim. Men mingan
eshakdan bo‘lak boshqa birorta hayvonni o‘zimiz bilan olmadik. 13 Men tunda Soylik
darvozasi orqali shahardan chiqib, Ajdar bulog‘iga*, u yerdan Go‘ng darvozasiga bordim.
Vayron bo‘lib yotgan Quddus devorini, yonib ketgan darvozalarini ko‘zdan kechirdim.
14 So‘ngra Buloq darvozasiga va Shoh hovuziga bordim. Lekin minib borayotgan eshagim
vayronalar orasidan yo‘l topa olmadi. 15 Shu sababdan men Qidron soyligiga* tushdim.
Soylik bo‘ylab chiqib borib, o‘sha yerdan devorni ko‘zdan kechirishda davom etdim.
So‘ng ortimga qaytib, Soylik darvozasi orqali shaharga kirdim.

16 Qayerga borganimni, nima qilayotganimni shahar amaldorlari bilmasdilar. Men
yahudiylarga, ruhoniylarga, yo‘lboshchilarga, amaldorlarga va ishda qatnashadigan
boshqa odamlarga hali hech gap aytmagandim. 17 Nihoyat, endi ularga shunday dedim:
“Qanchalar kulfatda qolganimizni o‘zlaringiz ko‘rib turibsizlar! Quddus vayron bo‘lib
yotibdi, shaharning darvozalari yonib ketgan. Kelinglar, shahar devorini qaytadan
quraylik, sharmandali ahvolimizdan qutulaylik.” 18 Xudoyimning marhamati menga yor
bo‘lganini va shohning menga aytgan gaplarini ularga aytib berdim. Ular: “Qurilishni
boshlaylik”, deyishdi. Shunday qilib, ular ishni boshlashga tayyor bo‘ldilar.

19 Bayt–Xo‘ronlik Sanballat, Ommonlik malay To‘viyo va Arabistonlik Gashim buni
eshitib, bizning ustimizdan kuldilar, nafrat bilan shunday dedilar:

— Bu qilayotganlaringiz nimasi?! Sizlar shohga qarshi isyon ko‘taryapsizlarmi?!

20 Men ularga shunday javob berdim:

— Samoviy Xudo ishimizning barorini beradi. Biz, Uning qullari, devorni qayta
qurishni boshlaymiz. Ammo sizlar bizga gaplaringizni o‘tkaza olmaysizlar, qo‘lingizdan
hech narsa kelmaydi. Sizlar bizning diniy marosimlarimizda ham qatnasha olmaysiz.

3–BOB

Quddus devori ta’mirlanadi*

Qo‘y darvozasi

1 Oliy ruhoniy Eliashab qo‘li ostidagi ruhoniylar bilan ishga kirishib, Qo‘y darvozasini
qaytadan qurdilar. So‘ngra darvozani Xudoga bag‘ishlab, darvozaning qanotlarini
o‘rnatdilar. Miyo* minorasidan Xanonil minorasigacha bo‘lgan devorni ham Xudoga
bag‘ishladilar.

2 Yerixo shahridan bo‘lgan erkaklar devorning keyingi qismini qurdilar. Ulardan

keyingi qismini esa Imri o‘g‘li Zakkur qurdi.

Baliq darvozasi

3 Xassano urug‘i Baliq darvozasini qurdi. Ular darvozaning yondorlarini tiklab,
darvoza qanotlarini, zulfinlarini, tambalarini o‘rnatdilar.
4 Devorning undan keyingi qismida Xakko‘zning nabirasi, Uriyoning o‘g‘li Miromo‘t
ta’mirlash ishlarini olib bordi.
Keyingi qismida Mashazavilning nabirasi, Barxiyoning o‘g‘li Mashullom, undan
keyingi qismida Bano o‘g‘li Zodo‘x ta’mirlash ishlarini olib bordilar.
5 Keyingi qismida Taxuva shahridan bo‘lgan erkaklar ta’mirlash ishlarini olib
bordilar. Lekin shahar zodagonlari qurilish nazoratchilari buyurgan ishlardan* bosh
tortdilar.

Yashono darvozasi

6 Posiyox o‘g‘li Yo‘xadax va Besodayax o‘g‘li Mashullom Yashono darvozasini*
ta’mirladilar. Ular darvozaning yondorlarini tiklab, darvoza qanotlarini, zulfinlarini,
tambalarini o‘rnatdilar.
7 Devorning navbatdagi qismida Givonlik Malatiyo, Mirono‘tlik Yodo‘n, shuningdek,
Givon va Mispax aholisining erkaklari ta’mirlash ishlarini olib bordilar. Mispax shahri
Furot daryosining g‘arbidagi viloyatning* ma’muriy markazi edi.
8 Devorning keyingi qismida zargarlardan biri Xarhiyo o‘g‘li Uziyol ta’mirlash
ishlarini olib bordi. Uning yonida attorlardan biri Xanoniyo ta’mirlash ishlarini olib
bordi. Ular Quddus devorining Keng devorgacha bo‘lgan qismini ta’mirladilar.
9 Devorning keyingi qismida Xur o‘g‘li Rafiyo ta’mirlash ishlarini olib bordi. Rafiyo
Quddus hududining yarmini boshqaruvchi hokim edi.
10 Undan keyin Xarumaf o‘g‘li Yodiyo o‘z uyining ro‘parasidagi devorni ta’mirladi.
Devorning keyingi qismida Xashavniyo o‘g‘li Xattush ta’mirlash ishlarini olib bordi.
11 Xarim o‘g‘li Malkiyo va Paxatmo‘ab o‘g‘li Xashshub devorning keyingi qismini va
Tandir minorasini ta’mirladilar.
12 Devorning keyingi qismida Xalloxesh o‘g‘li Shallum o‘z qizlari bilan ta’mirlash
ishlarini olib bordi. Shallum Quddus hududining ikkinchi yarmini boshqaruvchi hokim
edi.

Soylik darvozasi

13 Xanun boshchiligida Zono‘vax aholisi Soylik darvozasini ta’mirladi. Ular darvozani
qurib, darvozaning qanotlarini, zulfinlarini, tambalarini o‘rnatishdi, devorning ming
tirsak* uzunligidagi Go‘ng darvozasigacha bo‘lgan qismini ham ta’mirlashdi.

Go‘ng darvozasi

14 Bayt–Xakerem hududining hokimi Raxav o‘g‘li Malkiyo Go‘ng darvozasini
ta’mirladi. U darvozani qurib, darvozaning qanotlarini, zulfinlarini, tambalarini o‘rnatdi.

Buloq darvozasi

15 Mispax hududining hokimi Xolxozi o‘g‘li Shallum Buloq darvozasini ta’mirladi. U
darvozani qurib, ustini yopdi va darvozaning qanotlarini, zulfinlarini, tambalarini
o‘rnatdi. Shuningdek, Siloam* hovuzi yonidagi devorni ham qaytadan qurdi. Devorning
bu qismi shohning bog‘idan to Dovud qal’asidan pastga ketgan zinapoyagacha cho‘zilgan
edi.

16 Undan keyin Ozbuk o‘g‘li Naximiyo ta’mirlash ishlarini olib bordi. Naximiyo Bayt–
Zur hududining yarmini boshqaruvchi hokim edi. U devorni Dovud qabristonining
ro‘parasigacha — sun’iy hovuz va Jangchilar uyigacha bo‘lgan qismini ta’mirladi.
17 Quyidagi levilar devorning keyingi bir necha qismlarini qaytadan qurdilar: Banix
o‘g‘li Raxum devorning keyingi qismini qurdi.
Keylax hududining yarmini boshqaruvchi hokim Xashaviyo o‘z hududi nomidan
devorning navbatdagi qismini qurdi.
18 Devorning undan keyingi qismini ularning birodarlari Xanadod o‘g‘li Binnuy*
boshchiligida qurishdi. Binnuy Keylax hududining ikkinchi yarmini boshqaruvchi hokim
edi.
19 Keyingi qismida Mispax shahri hokimi Yeshuva o‘g‘li Eyzar ta’mirlash ishlarini olib
bordi. U aslahaxonaga chiqadigan yo‘lning ro‘parasidagi devorni g‘isht tirgovuchigacha*
bo‘lgan qismini ta’mirladi.
20 Zabbay o‘g‘li Borux devorning keyingi qismini — g‘isht tirgovuchidan oliy ruhoniy
Eliashabning uyi eshigigacha bo‘lgan qismini ta’mirladi.
21 Xakko‘zning nabirasi, Uriyo o‘g‘li Miromo‘t* devorning keyingi qismini — Eliashab
uyining eshigi ro‘parasidan to uyning oxirigacha bo‘lgan qismini ta’mirladi.
22 Quddus atrofida istiqomat qiladigan ruhoniylar devorning navbatdagi qismini
ta’mirladilar.
23 Ulardan keyin Benyamin va Xashshub devorning o‘z uylari ro‘parasidagi qismini
ta’mir qildilar.
Ulardan keyin Ononiyohning nabirasi, Masiyoning o‘g‘li Ozariyo o‘z uyining
ro‘parasidagi qismini ta’mirladi.
24 Xanadod o‘g‘li Binnuy* devorning keyingi qismini — Ozariyoning uyidan to
devorning burchagidagi g‘isht tirgovuchigacha bo‘lgan qismini ta’mirladi.
25 Uzay o‘g‘li Polol devorning g‘isht tirgovuchidan boshlangan qismini ta’mirladi.
Devorning bu qismi soqchilar hovlisi yonidagi shohning yuqori saroy minorasi
ro‘parasida joylashgan edi.
Paro‘sh o‘g‘li Podiyo 26 va Ofel tepaligida* istiqomat qiluvchi Ma’bad xizmatkorlari
devorning keyingi qismini ta’mirladilar. Ular devorning sharq tomonidagi Suv
darvozasigacha va baland minoragacha bo‘lgan qismini ta’mirladilar.
27 Taxuvalik erkaklar* devorning keyingi qismini ta’mirladilar. Ular baland
minoraning ro‘parasini to Ofel devorigacha ta’mir qildilar.

Ot darvozasi

28 Ruhoniylar guruhi devorning Ot darvozasidan tepalikka tomon ketgan qismini
ta’mirladilar. Har biri o‘z uyining ro‘parasini ta’mir qildi.
29 Immar o‘g‘li Zodo‘x o‘z uyining ro‘parasini ta’mirladi.
Shaxaniyo o‘g‘li Shamayo devorning keyingi qismini ta’mirladi. Shaxaniyo
Ma’badning Sharqiy darvozasi darvozaboni edi.
30 Shalamiyo o‘g‘li Xanoniyo va Zalafning oltinchi o‘g‘li Xanun devorning keyingi
qismini ta’mirladi.
Barxiyo o‘g‘li Mashullom o‘zining uyi ro‘parasini ta’mirladi.
31 Zargarlardan biri Malkiyo devorning burchagidagi yuqori xonagacha bo‘lgan
qismini ta’mirladi. Ma’bad xizmatkorlarining va savdogarlarning uyi shu yerda —

Nazorat* darvozasi yonida joylashgan edi.
32 Devorning burchakdagi yuqori xonadan Qo‘y darvozasigacha bo‘lgan qismini
zargarlar va savdogarlar ta’mirladilar.

4–BOB

Dushmanlarning niyatini Xudo puchga chiqaradi

1 Sanballat devorni qurayotganimizni eshitdi–yu, jahli chiqib, qattiq g‘azablandi.
So‘ng yahudiylarni masxaralay boshladi. 2 U sheriklarining va Samariya
lashkarboshilarining oldida shunday dedi: “Bu ojiz yahudiylar nima qilyaptilar o‘zi?!
O‘zlaricha devorni ta’mirlamoqchilarmi?! Bu ishni bir kunda bitirib, qurbonlik
kuydirishni ham o‘ylayaptilar, shekilli–a?! Yonib bitgan vayronalardan toshlarga jon ato
qilmoqchilarmi?!” 3 Ommonlik To‘viyo Sanballatning yonida edi. U ham shunday dedi:
“Ular qurayotgan bu devor ustiga hatto tulki chiqsa ham, devor qulab tushadi.”

4 Shunda men ibodat qilib dedim: “Ey Xudoyimiz! Bizlarni qanchalik xor
qilishayotganini eshitib qo‘y! Ularning masxaralashlarini o‘zlarining boshiga sol. Ular
surgun bo‘lishsin, dushmanlariga o‘lja bo‘lishsin. 5 Ularning ayblaridan o‘tma,
gunohlarini unutma! Axir, ular binokorlar oldida Seni haqorat qildilar*.”

6 Biz devorni quraverdik, xalq chin dildan ishlagani uchun tez orada devorni
yarmigacha ko‘tarib bo‘ldik.
7 Devorni ta’mirlash ishlari yaxshi ketib, devorning o‘pirilgan joylari tiklana
boshlagan edi. Sanballat, To‘viyo, Arabistonliklar, Ommonliklar va Ashdodliklar* bu
haqda eshitib, qattiq g‘azablandilar. 8 Hammalari birgalikda til biriktirib, Quddusga
hujum qilishga va shaharni sarosimaga solishga qasd qildilar. 9 Lekin biz Xudoyimizga
iltijo qildik, shaharni va o‘zimizni kechayu kunduz ulardan himoya qilish uchun
qo‘riqchilar tayinladik.
10 Yahudo xalqi esa shunday deb nola qilar edi:

Og‘ir yuk tashuvchilarning holi qolmadi,
Axlatning–chi oxiri ko‘rinmaydi!
Bu devorni bitirishga hech ko‘zimiz yetmaydi.

11 Dushmanlarimiz esa quyidagicha reja qilishardi: “Biz bildirmasdan, ko‘rinmay
ularning ustiga bostirib boramiz–da, hammalarini o‘ldiramiz, ishlarini to‘xtatamiz.”
12 Ularga qo‘shni bo‘lgan yahudiylar ham har tomondan o‘n martacha oldimizga kelishdi
va bizni shunday deb ogohlantirishdi: “Xavf ostida qoldingizlar. Yaxshisi, bu joydan
chiqib ketinglar, borib, biz bilan yashanglar.”* 13 Shuning uchun men devorning eng past
joylari orqasiga, ochiq joylariga qilich, nayza va yoy bilan qurollangan odamlarni
urug‘lari bo‘yicha joylashtirdim. 14 Keyin ahvolni ko‘rib, yo‘lboshchilarga, amaldorlarga
va qolgan xalqqa aytdim: “Dushmanlardan qo‘rqmanglar. Rabbiyni yodingizda tutinglar.
U qudratli va haybatli Xudodir. Qarindosh–urug‘laringizni, o‘g‘il–qizlaringizni,
xotinlaringizni, uy–joylaringizni himoya qilish uchun jang qilinglar!”
15 Dushmanlarimizning bizga qarshi o‘ylagan fitnalaridan xabardor ekanimizni
ularning o‘zlari ham eshitishdi. Ularning niyatini Xudo puchga chiqargan edi. Shunday

qilib, hammamiz yana devorni ta’mirlash ishlariga qaytdik. Har kim o‘z ishiga bordi. 16-17 O‘sha kundan boshlab odamlarimning* yarmi qurilishda ishladi, yarmi esa sovut kiyib, nayza, qalqon va yoy ushlab, soqchilik qildi. Yo‘lboshchilar devorni qurayotgan Yahudo odamlarining yonida o‘z joylarini egallashdi. Og‘ir yuk tashuvchilar bir qo‘li bilan mehnat qilib, bir qo‘lida qurol ushlab, o‘z vazifalarini bajarardilar. 18 Devor qurayotganlarning har biri yoniga qilich bog‘lagan holda ish qilar edi. Burg‘u chaladigan odam ham doim yonimda edi. 19 Men yo‘lboshchilarga, amaldorlarga va qolgan xalqqa aytdim: “Ishimiz katta, oramizdagi masofa uzoq, shuning uchun devor bo‘ylab bir–birimizdan yiroqlashib, ajralib qolganmiz. 20 Burg‘u ovozini eshitishingiz bilanoq, bizga qo‘shilinglar. Xudoyimiz biz uchun jang qiladi!”

21 Biz shu yo‘sinda mehnat qilardik. Odamlarning yarmi erta tongdan osmonda yulduzlar ko‘ringuncha nayza ushlab soqchilik qilardi. 22 Men o‘sha paytda odamlarga shunday deb aytdim: “Sizlar o‘z yordamchilaringiz bilan tunni Quddusning ichkarisida o‘tkazinglar. Tunda soqchilik qilinglar, kunduzi esa ishlanglar.” 23 Shunday qilib, hech birimiz — men ham, qarindosh–urug‘larim ham, odamlarim ham, yonimdagi qo‘riqchilar ham, shu vaqt davomida, hatto kechasi ham kiyimlarimizni yechmadik. Qurollarimiz doimo yonimizda edi.

5–BOB

Naximiyo kambag‘allarga yordam beradi

1 Oradan bir oz vaqt o‘tgach, ba’zi erkagu ayollar o‘z yahudiy birodarlaridan qattiq noliy boshlashdi. 2 Ulardan ba’zilari shunday deb aytishardi: “Biz ko‘pchilikmiz, bola–chaqamiz ko‘p. Bizga bug‘doy kerak, bo‘lmasa ochlikdan o‘lib qolamiz.” 3 Boshqa ba’zi birlari esa shunday deb aytishardi: “Ocharchilik paytida donimiz bo‘lsin deb, dalalarimizni, uzumzorlarimizni, uylarimizni garovga beryapmiz.” 4 Yana birovlari shunday deb nolishardi: “Dalalarimiz va uzumzorlarimiz solig‘ini shohga to‘lash uchun pulni qarzga olyapmiz. 5 Yahudiy birodarlarimizdan bizning kam joyimiz yo‘q! Ularning bolalari bizning bolalarimizdan ortiq emas. Lekin o‘g‘il–qizlarimizni qul, cho‘ri qilib sotishga majbur bo‘lyapmiz. Ha, qizlarimizdan ba’zilari cho‘ri qilib sotildi ham. Bu xususda biror narsa qilishga ojizmiz. Axir, dalalarimiz, uzumzorlarimiz endi boshqalarning qo‘lida.”

6 Ularning dod–faryodlarini, shikoyatlarini eshitib, qattiq g‘azablandim. 7 Bu to‘g‘rida mulohaza qilib, yo‘lboshchilar bilan amaldorlarni koyidim: “Sizlar hali birodarlaringizning garovga qo‘ygan mulklarini tortib olyapsizlarmi?!” So‘ngra katta bir yig‘in chaqirtirib, yo‘lboshchilarga tanbeh berdim: 8 “Butparast xalqlarga qul va cho‘ri qilib sotilgan yahudiy birodarlarimizni imkonimiz boricha qaytarib sotib oldik. Endi esa birodarlaringizning qullikka sotilishiga o‘zlaringiz sababchi bo‘lyapsizlar. Ularni biz yana qaytarib sotib olishimiz kerakmi?!” Yo‘lboshchilar va amaldorlar sukut saqlab, miq etmay turaverdilar.

9 Men gapimni davom ettirdim: “Bu ishingiz yaxshi emas. Dushmanlik qilayotgan xalqlarga masxara bo‘lmasligingiz uchun Xudoyimizdan qo‘rqib yurishlaringiz kerak emasmi?! 10 Mana, mening yaqinlarim, odamlarim, hatto o‘zim ham yahudiy birodarlarimizga qarzga pul va bug‘doy berib turibmiz. Kelinglar, endi ularning garovga qo‘yilgan narsalarini tortib olmaylik! 11 Sizlar ulardan tortib olgan dalalarni,

uzumzorlarni, zaytunzorlarni, uylarni, foiz qilib olgan pullarni, donni, sharobni, zaytun moyini hoziroq o‘zlariga qaytarib beringlar.”

12 Yo‘lboshchilar va amaldorlar shunday dedilar: “Aytganlaringizni qilamiz. Biz ularning hamma narsasini qaytarib beramiz, ulardan endi hech narsa talab qilmaymiz.”

Men ruhoniylarni chaqirdim, bergan va’dalarini bajarishlari uchun yo‘lboshchilar va amaldorlarga qasam ichirdim. 13 So‘ng belbog‘imni yechib qoqdim–u* shunday dedim: “Shu va’dani bajarmaganni Xudo xuddi shunday qilib qoqib yuborsin. Uni uyidan va mol–mulkidan mahrum qilsin. Xudo o‘sha odamlarni qup–quruq qoldirsin.” Butun jamoa “Omin” deb, Egamizga hamdu sanolar aytdi. Yo‘lboshchilar va amaldorlar bergan va’dalarida turdilar.

Naximiyoning fidoyiligi

14 Men Yahudo yurti hokimi etib tayinlanganim uchun xalqdan oziq–ovqat talab qilish huquqiga ega edim. Lekin hokimligimning o‘n ikki yili davomida — Artaxshas hukmronligining yigirmanchi yilidan to o‘ttiz ikkinchi yiligacha* men xalqdan o‘zim uchun ham, qarindosh–urug‘larim uchun ham hech qanday oziq–ovqat talab qilmadim. 15 Mendan oldingi hokimlar xalqdan kuniga qirq kumush tanga* bilan birga oziq–ovqat va sharob ham olib, xalqning yelkasiga minib olgan ekan. Hatto hokimlarning odamlari ham xalqqa hukmini o‘tkazardilar. Men esa Xudodan qo‘rqqanim uchun shunday qilmadim. 16 Buning o‘rniga men butun kuchimni devorni qayta qurishga bag‘ishladim. Odamlarimning hammasi* ta’mirlash ishlariga bel bog‘lagan edi. Yer sotib olishga vaqtimizni sarflab o‘tirmadik.

17 Mening dasturxonimdan har kuni 150 yahudiy va ularning amaldorlari taom yerdilar. Bulardan tashqari, atrofdagi xalqlardan kelgan mehmonlarning oyog‘i menikidan uzilmas edi. 18 Har kungi dasturxonimga bitta buqa, oltita semiz qo‘y va bir qancha tovuqlar talab qilinardi. Har o‘n kunda mesh–mesh turli xil sharob kerak bo‘lardi. Lekin xalq shusiz ham og‘ir soliqlar* ostida qolib ketganini bilar edim. Shu bois men hokim sifatida talab qilishga haqim bo‘lgan oziq–ovqatdan voz kechdim.

19 Ey Xudoyim! Bu xalq uchun qilgan hamma ishlarimni yodingda tut, mendan marhamatingni darig‘ tutmagin.

6–BOB

Naximiyoga qarshi fitna

1 Sanballat, To‘viyo, Arabistonlik Gashim va boshqa dushmanlarimiz devorni qurib bo‘lganimni, devorda bironta ham o‘pirilgan joy qolmaganini eshitishdi. Lekin darvozalarning qanotlarini hali o‘rnashtirib bo‘lmagan edim. 2 Shunda Sanballat va Gashim menga: “Kel, Ono‘ tekisligidagi* qishloqlardan birida* uchrashaylik”, deb xabar jo‘natishdi. Lekin ular menga shikast yetkazishga qasd qilayotgan edilar. 3 Shuning uchun ularga xabarchilar orqali shunday javob berdim: “Men muhim ish bilan bandman, bora olmayman. Sizlarning oldingizga ketsam, ish to‘xtab qoladi!” 4 Ular menga to‘rt marta shunday xabar jo‘natishdi, men bir xil javob beraverdim. 5 Beshinchi marta Sanballatning odami qo‘lida ochiq maktub bilan keldi. 6 Maktub shunday yozilgan edi:

“Boshqa xalqlar orasida shunday mish–mishlar yuribdi, Gashim* ham o‘sha

gapni aytyapti: sen va yahudiylar isyon qilmoqchi bo‘lib, devorni qurayotgan
ekansizlar. Xabarlarga qaraganda, sen yahudiylarning shohi bo‘lishni
mo‘ljallayotgan ekansan. 7 Sen Quddusda payg‘ambarlar tayinlabsan.
Payg‘ambarlar: «Yahudoning shohi bor», deb sen to‘g‘ringda bashorat
qilishayotgan ekan. Bu gap–so‘zlar albatta shohning qulog‘iga yetib boradi.
Taklifim shuki, kelgin, bu haqda maslahatlashib olaylik.”

8 Men unga shunday javob jo‘natdim: “Aytganlaringning hammasi yolg‘on.
Hammasini o‘zing to‘qib chiqargansan.” 9 Ular bizni qo‘rqitmoqchi bo‘lgan, “Shunday
qilsak, ularning qo‘llari ishdan soviydi, ishlari oxiriga yetmay, qolib ketadi”, deb o‘ylagan
edilar. Shuning uchun men: “Ey Xudo, menga kuch ber!” deb yolvordim.
10 Bir kuni men Maxitavalning nabirasi, Daloyoning o‘g‘li Shamayonikiga bordim. U
uyiga berkinib olgan ekan. Shamayo menga shunday dedi*:

Kel, Xudoning uyida uchrashaylik,
Muqaddas xonasiga kirib olaylik*,
Eshiklarini berkitib qo‘yaylik.
Axir, dushmanlaring seni o‘ldirgani kelyaptilar,
Shu kecha joningga qasd qilmoqchi bo‘lyaptilar.

11 — Lekin men shunday javob berdim:
— Mening martabamdagi odam bunday vaziyatda qocharmidi?! Muqaddas xonada
yashirinib olsam, jonimni haqiqatan ham qutqara olaman, deb o‘ylayapsizmi?!
Muqaddas xonaga hecham kirmayman!
12 Shamayoning so‘zlari Xudodan emasligini men aniq bildim. To‘viyo va Sanballat
Shamayoni yollaganlari uchun, u menga shu xabarni bergan edi. 13 Ularning bundan
maqsadi meni qo‘rqitish, aytganlarini qildirib, meni gunohga botirish edi. Shunda
obro‘yim to‘kilib, ularga mazax bo‘lib qolardim.

14 Ey Xudoyim! To‘viyo bilan Sanballatning qilmishlarini yodingda tut. Meni
qo‘rqitmoqchi bo‘lgan payg‘ambar ayol Novadiyoning va boshqa
payg‘ambarlarning qilmishlarini unutma, ularning jazosini ber.

Devorni ta’mirlash ishlari tugaydi

15 Shunday qilib, devor Elul oyining* yigirma beshinchi kuni — ellik ikki kunda
bitkazildi. 16 Atrofdagi xalqlardan bo‘lgan dushmanlarimiz buni eshitib, qo‘rqdilar,
xijolatda qoldilar. Chunki bu ish Xudoyimizning madadi bilan qilinganini ular bildilar.
17 Ellik ikki kun davomida Yahudo yo‘lboshchilari va To‘viyo bir–birlari bilan maktub
yozishib turdi. 18 Chunki Yahudo yurtidagi ko‘p odam To‘viyoga sodiq edi, bunga ikki
sabab bor edi: To‘viyoning qaynatasi Orax o‘g‘li Shaxaniyo edi, To‘viyoning o‘g‘li
Yohuxanon esa Barxiyo o‘g‘li Mashullomning* qiziga uylangan edi. 19 O‘sha odamlar
mening oldimda To‘viyoning savob ishlaridan gapirishar, o‘z navbatida mening
gaplarimni unga yetkazishar edi. To‘viyo esa meni qo‘rqitish niyatida maktub jo‘natardi.

7–BOB

1 Devor qurilib, men darvozalarning qanotlarini o‘rnattirib bo‘lganimdan keyin,

Ma’bad darvozabonlari*, qo‘shiqchilar va levilar tayinlandi. 2 Men ukam* Xoninni va
qal’a qo‘mondoni Xanoniyoni Quddus ustidan hokimlar qilib tayinladim. Xanoniyo sodiq
odam bo‘lib, boshqalarga qaraganda Xudodan qo‘rqardi. 3 Men ularga shunday deb
aytdim: “Kun issiq paytida Quddus darvozalarini ochiq qoldirmanglar*. O‘sha paytda
navbatchilikda turgan soqchilar darvozalarni berkitib, qulflab qo‘ysinlar. Quddus aholisi
orasidan ham qo‘riqchilarni tayinlanglar. Ularning ba’zilari maxsus joylarni, boshqalari
esa o‘zlarining uylari atrofini qo‘riqlashsin.”

Surgundan qaytib kelganlarning ro‘yxati

4 Quddus keng, katta shahar edi. Lekin shaharda ko‘p odam yashamas, hali uylar ko‘p
qurilmagan edi. 5 Shunda yo‘lboshchilarni, amaldorlarni va xalqni to‘plab, urug‘lari
bo‘yicha ro‘yxat tuzishni Xudoyim ko‘nglimga soldi. Men Yahudoga surgundan birinchi
bo‘lib qaytib kelganlarning* nasabnomasi ro‘yxatini topdim. Nasabnoma kitobida
quyidagilar yozilgan edi:

6-7 “Bobil shohi Navuxadnazar asir qilib olib ketgan yahudiylarning* bir qismi
Quddusga va Yahudo yurtidagi o‘z shaharlariga qaytib kelib, o‘rnashdilar. Ular
Zarubabel, Yoshua, Naximiyo, Ozariyo*, Ramiyo, Naxamonax, Mardoxay, Bilshon,
Mispar, Big‘vay, Nixum va Banax boshchiligida qaytib kelgan edilar.

Isroil urug‘lari ota–bobolari bo‘yicha ro‘yxat qilinadi

Surgundan qaytib kelgan Isroil erkaklarining soni quyidagicha edi:

8 Paro‘sh urug‘idan — 2172 nafar erkak.
9 Shafatiyo urug‘idan — 372 nafar erkak.
10 Orax urug‘idan — 652 nafar erkak.
11 Paxatmo‘ab, ya’ni Yeshuva hamda Yo‘ab urug‘laridan — 2818 nafar erkak.
12 Elam urug‘idan — 1254 nafar erkak.
13 Zattu urug‘idan — 845 nafar erkak.
14 Zakkay urug‘idan — 760 nafar erkak.
15 Binnuy urug‘idan — 648 nafar erkak.
16 Bo‘vay urug‘idan — 628 nafar erkak.
17 Ozgad urug‘idan — 2322 nafar erkak.
18 Odonixam urug‘idan — 667 nafar erkak.
19 Big‘vay urug‘idan — 2067 nafar erkak.
20 Adin urug‘idan — 655 nafar erkak.
21 Oter, ya’ni Yoxizqiyo urug‘idan — 98 nafar erkak.
22 Xashum urug‘idan — 328 nafar erkak.
23 Bezay urug‘idan — 324 nafar erkak.
24 Xorif urug‘idan — 112 nafar erkak.
25 Givon urug‘idan — 95 nafar erkak.

Isroil urug‘lari ota–bobolarining shaharlari bo‘yicha ro‘yxat qilinadi

26 Tagi Baytlahmlik va Natufolik — 188 nafar erkak.
27 Tagi Onoto‘tlik — 128 nafar erkak.
28 Tagi Bayt–Ozmobitlik — 42 nafar erkak.
29 Tagi Xirat–Yo‘rimlik, Xafiralik va Baro‘tlik — 743 nafar erkak.

30 Tagi Ramalik va Gebolik — 621 nafar erkak.
31 Tagi Mixmashlik — 122 nafar erkak.
32 Tagi Baytillik va Aylik — 223 nafar erkak.
33 Tagi Navolik — 52 nafar erkak.
34 Tagi Elamlik — 1254 nafar erkak.
35 Tagi Xarimlik — 320 nafar erkak.
36 Tagi Yerixolik — 345 nafar erkak.
37 Tagi Lo‘dlik, Hodidlik va Ono‘lik — 721 nafar erkak.
38 Tagi Sanolik — 3930 nafar erkak.

Ruhoniylar urug‘lari

39 Surgundan qaytib kelgan ruhoniylarning soni quyidagicha edi:

Yoshua naslidan, aniqrog‘i Yodiyo urug‘idan — 973 nafar erkak.
40 Immar urug‘idan — 1052 nafar erkak.
41 Pashxur urug‘idan — 1247 nafar erkak.
42 Xarim urug‘idan — 1017 nafar erkak.

Levilar urug‘lari

43 Surgundan qaytib kelgan levilar urug‘larining soni quyidagicha edi:

Xo‘davo naslidan bo‘lgan Yeshuva, aniqrog‘i Kadmil urug‘laridan — 74 nafar erkak.
44 Osif urug‘idan bo‘lgan qo‘shiqchilar — 148 nafar erkak.
45 Shallum, Oter, Talmo‘n, Oqquv, Xatita va Sho‘vay urug‘laridan bo‘lgan Ma’bad darvozabonlari — 138 nafar erkak.

Ma’bad xizmatkorlari urug‘lari

46 Surgundan qaytib kelgan Ma’bad xizmatkorlarining urug‘lari quyidagilar edi:

Zixo, Xasufa, Tabbayo‘t,
47 Kerosh, Siyo, Pado‘n,
48 Lavon, Xagava, Shalmay,
49 Xanon, Giddol, Gaxar,
50 Rayo, Ratan, Nakudo,
51 G‘azzom, Uzzo, Posiyox,
52 Besay, Munim, Nafusim,
53 Bobuh, Xakufa, Xorxur,
54 Bazulat, Maxido, Xarsha,
55 Borkis, Sisaro, Tamax,
56 Naziyo, Xatifa.

Sulaymonning qarollari urug‘lari

57 Sulaymon qarollarining* surgundan qaytib kelgan urug‘lari quyidagilar edi:

So‘tay, So‘farat, Paridax,
58 Yalox, Darxun, Giddol,
59 Shafatiyo, Xattil, Paxarathazzavoyim, Omon.

60 Ma’bad xizmatkorlari va Sulaymonning qarollari urug‘laridan
bo‘lganlarning jami 392 kishi edi.

Nasl–nasabi noma’lum urug‘lar

61-62 Quyidagilar Tel–Malax, Tel–Xarsha, Xarub, Ado‘n va Immar shaharlaridan
kelgan edilar:

Daloyo, To‘viyo va Nakudo urug‘lari — 642 kishi.

Lekin bular o‘zlarining urug‘boshisi Isroil nasliga mansubligini isbotlay
olmasdilar.

63-64 Quyidagi ruhoniylar urug‘lari ham o‘z nasabnomasini topa olmadilar:
Xavayo, Xakko‘z va Borzulay urug‘lari. (Borzulayning bobosi Giladlik Borzulay
degan odamning qiziga uylangan bo‘lib, bu urug‘ o‘sha ayolning urug‘i nomi bilan
yuritilar edi.) Shu sababdan ular xizmat qilishga nopok hisoblanib, ruhoniylikka
qabul qilinmadilar. 65 Yahudo hokimi* ularga shunday dedi: «Birorta ruhoniy
Xudodan Urim va Tummim* orqali ruhoniy ekanligingizni so‘rab,
tasdiqlamaguncha, sizlar nazrlarning ruhoniylarga tegishli ulushidan tanovul
qilmaysizlar.»

Surgundan qaytib kelgan jamoaning jami

66 Bu jamoa jami 42.360* kishidan iborat edi. 67 Bulardan tashqari, qul va
cho‘rilari — 7337 kishi, qul va cho‘ri qo‘shiqchilar 245 kishi edi. 68 Jamoaning
736 ta oti, 245 ta xachiri, 69 435 ta tuyasi, 6720 ta eshagi bor edi.

70 Ba’zi urug‘boshilar qurilish ishlari uchun in’omlar berdilar. Hokim ham
xazinaga 1000 oltin tanga*, 50 ta tog‘oracha va ruhoniylar uchun 530 ta ko‘ylak
berdi. 71 Ba’zi urug‘boshilar inshoot qurilishi uchun xazinaga 20.000 oltin tanga*,
80 pud* kumush berdilar. 72 Qolgan xalq jami 20.000 oltin tanga, 75 pud*
kumush va ruhoniylar uchun 67 ta ko‘ylak berdilar. 73 (73a) Shunday qilib,
ruhoniylar, levilar, Ma’bad darvozabonlari, qo‘shiqchilar, Ma’bad xizmatkorlari
va xalqning qolganlari o‘z shaharlariga borib joylashdilar.”

8–BOB

Ezra xalqqa Tavrotni o‘qib beradi

(7:73b) Yettinchi oyda* Isroil xalqi o‘z shaharlarida o‘rnashib olgandan keyin, 1 butun
xalq Suv darvozasi oldidagi maydonda to‘plandi. Ular tafsirchi Ezraga: “Isroil xalqiga
Muso orqali Egamiz bergan Tavrotni olib keling”, deb aytdilar. 2 Shunday qilib, yettinchi
oyning* birinchi kunida ruhoniy Ezra Tavrotni jamoa oldiga olib keldi. Erkagu ayol, esini
tanigan hamma odam shu yerda edi. 3 Ezra Suv darvozasining oldidagi maydonda
sahardan peshingacha jamoaga Tavrotni o‘qib berdi. Jamiki xalq diqqat bilan quloq solib
tingladi. 4 Tafsirchi Ezra yig‘in uchun tayyorlangan baland yog‘och supa ustida turardi.
Uning o‘ng tomonida Mattitiyo, Shama, Onoyoh, Uriyo, Xilqiyo, Masiyo va chap tomonida
Podiyo, Mishail, Malkiyo, Xashum, Xashbaddanax, Zakariyo, Mashullom turar edilar.

5 Ezra baland supa ustida turgani uchun jamiki xalq uni ko‘rib turar edi. U butun
xalqning ko‘zi oldida Tavrot kitobini ochdi. Ezra kitobni ochganda, butun xalq o‘rnidan

turdi. 6 So‘ngra Ezra ulug‘vor Xudo — Egamizni olqishladi, jamiki xalq qo‘llarini ko‘tarib, “Omin, Omin”, dedi. So‘ng xalq ikki bukilib, Egamizga ta’zim qildi.

7 Xalq joyida turar ekan, levilar — Yeshuva, Banix, Sharaviyo, Yomin, Oqquv, Shabbatay, Xo‘diyo, Masiyo, Kilit, Ozariyo, Yo‘zabad, Xanon va Paliyo xalqqa Tavrotni tushuntirar edilar. 8 Ular Xudoning Tavrot kitobidan o‘qib, o‘qiganlarini tarjima qilib berardilar*, Tavrotning mazmunini tushuntirardilar, shuning uchun xalq o‘qilganlarni tushundi.

9 Butun xalq Tavrot so‘zlarini eshitganlarida yig‘ladi. Lekin hokim Naximiyo*, ruhoniy va tafsirchi bo‘lgan Ezra, shuningdek, xalqqa Tavrotni tushuntirgan levilar butun jamoaga aytdilar: “Bugungi kun Egangiz Xudoga bag‘ishlangan muqaddas kundir, shuning uchun qayg‘urmanglar, yig‘lamanglar.” 10 Keyin Ezra* xalqqa dedi: “Endi uylaringizga qaytib boringlar, yog‘li taomlar yeb, shirin sharob ichinglar. Hech narsa tayyorlamaganlarga taomlaringizdan beringlar. Bugungi kun Rabbimizga bag‘ishlangan muqaddas kundir. Bugun qayg‘urmanglar, axir, Egamiz tufayli topgan sevinchingiz najot qo‘rg‘oningizdir.” 11 Levilar ham jamiki xalqqa: “Xotirjam bo‘linglar, qayg‘uga botmanglar, chunki bu kun muqaddasdir”, deb tasalli berdilar. 12 Jamiki xalq Tavrotdan eshitgan so‘zlarini anglab tushunganlari uchun yeb–ichgani, taom ulashib, katta xursandchilik qilgani uylariga ketishdi.

Chayla bayrami

13 Ertasi kuni jamiki xalqning urug‘boshilari, ruhoniylar va levilar Tavrot so‘zlarini o‘rganish uchun tafsirchi Ezraning huzuriga kelishdi. 14 Ular Tavrotni o‘rganib, Muso orqali Egamiz bergan Chayla bayrami haqidagi amrni topdilar. Bu amrga ko‘ra*, Isroil xalqi yettinchi oyda* nishonlanadigan Chayla bayrami kunlarida chaylalarda yashashlari kerakligini bildilar. 15 Bundan tashqari, Quddusda va Isroil xalqining hamma shaharlarida quyidagilar e’lon qilinishi kerakligini ham bilib oldilar: “Tavrotda yozilgan ko‘rsatmalarga muvofiq, qirlarga chiqinglar, chaylalar yasash uchun zaytun daraxti, mirta butasi*, palma daraxtining va boshqa daraxtlarning shox–shabbalaridan olib kelinglar.” 16 Shunday qilib, xalq borib, shox–shabbalar olib keldi va o‘zlari uchun chaylalar yasashdi. Ular chaylalarni uylarining tomlarida*, hovlilarida, Xudoning uyi hovlisida, Suv darvozasi yonidagi maydonda, Efrayim darvozasi yonidagi maydonda yasadilar. 17 Surgundan qaytgan hamma odamlar chaylalar yasab, o‘sha chaylalarda yashadilar. Nun o‘g‘li Yoshua davridan beri Isroil xalqi bunday bayramni nishonlamagan edi. Hamma g‘oyat xursand edi. 18 Ezra har kuni — bayramning birinchi kunidan oxirgi kunigacha Xudoning Tavrot kitobidan o‘qib berdi. Tavrotda talab qilinganiday, ular yetti kun bayramni nishonladilar, sakkizinchi kuni muqaddas yig‘in bo‘ldi.

9–BOB

Xalq gunohlari uchun tavba qiladi

1 Yettinchi oyning* yigirma to‘rtinchi kuni Isroil xalqi yana yig‘in qildi. Ular qayg‘udan qanorga o‘ranib, boshlaridan tuproq sochib, ro‘za tutdilar. 2 Isroil nasli o‘zlarini hamma begonalardan ayirib oldilar, so‘ng o‘zlarining va ota–bobolarining gunohlari uchun tavba qildilar. 3 Ular taxminan uch soat davomida tik turib, Egasi Xudoning Tavrot kitobidan o‘qilgan so‘zlarni eshitdilar. Keyingi uch soat davomida esa tavba qilib, Egasi Xudoga sajda qildilar. 4 O‘sha yerda levilar turadigan bir zina bor edi.

Yeshuva, Banix, Kadmil, Shabaniyo, Bo‘nax, Sharaviyo, Banix va Xanonax o‘sha zinaga chiqib, Egasi Xudoga qattiq ovozda iltijo qildilar.

Levilar tavba–tazarru bilan ibodat qiladilar

5 So‘ngra levilardan bo‘lgan Yeshuva, Kadmil, Banix, Xashavniyo, Sharaviyo, Xo‘diyo, Shabaniyo va Patixiyo xalqqa da’vat qilib dedilar: “Endi turinglar, Egangiz Xudoni olqishlanglar!” Levilar hamdu sano o‘qidilar:

“Ey Egamiz Xudo! Senga abadulabad hamdu sanolar bo‘lsin. Senga munosib hamdu sano aytishga tilimiz ojiz bo‘lsa–da, hamma Sening ulug‘vor nomingni olqishlasin.

6 Yolg‘iz Sen Egamizdirsan! Sen osmonni, beqiyos falakni, undagi hamma samoviy jismlarni, zaminni, zamindagi hamma narsani, dengizlarni, dengizlardagi hamma narsani yaratgansan. Ularning hammasiga jon ato qilgan Sensan. Samodagi farishtalar Senga sajda qiladi.

7 Sen Parvardigor Egamizsan. Sen Ibromni tanlab olding, uni Xaldeydagi Ur shahridan olib chiqding, unga Ibrohim deb ism berding. 8 Uning sodiqligiga amin bo‘lding. Shuning uchun u bilan ahd qilib, deding: «Sening nasllaringga Kan’on, Xet, Amor, Pariz, Yobus va Girgosh xalqlarining yurtlarini beraman.» Sen ahdingda turding, chunki Sen sodiq Xudosan.

9 Ota–bobolarimizning Misrdagi azob–uqubatlarini O‘zing ko‘rding, ularning Qizil dengizda* qilgan dod–faryodlarini eshitding. 10 Sen fir’avnga, uning barcha a’yonlariga, Misr yurtining xalqiga qarshi alomatu mo‘jizalar ko‘rsatding. Chunki ular ota–bobolarimizga nisbatan surbetlarcha ish tutganlarini bilarding. O‘shanda qozongan dovrug‘ing shu kungacha saqlanib qolgan. 11 Sen ota–bobolarimizning ko‘z o‘ngida dengizni ikkiga bo‘lding, shu bois ular dengiz orqali quruq yerdan o‘tdilar. Ularni ta’qib qilayotgan Misrliklarni esa Sen dengiz qa’riga uloqtirding. Ular bahaybat suvlarga toshday g‘arq bo‘ldilar. 12 Sen kunduzi ota–bobolarimizni ustun shaklidagi bulut bilan boshlab bording, kechalari ustun shaklidagi alanga bilan ularning yo‘llarini yoritding.

13 Sen Sinay tog‘i uzra kelib turding, samodan turib ularga gapirding, ularga adolatli qoidalar, to‘g‘ri qonunlar, yaxshi farmonlaru amrlar berding. 14 Senga bag‘ishlangan Shabbat kuniga rioya qilish to‘g‘risida ularga ko‘rsatmalar berding. Quling Muso orqali ularga amrlar, farmonlar, qonunlar berding.

15 Ular och qolganlarida, samodan non berding, chanqaganlarida qoyadan ularga suv chiqarib berding. Sen Kan’on yurtini ularga beraman, deya ont ichgan eding. So‘ng ularga, boringlar, o‘sha yerni mulk qilib olinglar, deb aytding.
16 Lekin ota–bobolarimiz o‘zlariga bino qo‘yib, o‘jarlik qildilar, Sening amrlaringga itoat etmadilar. 17-18 Ular Senga itoat etishdan bosh tortdilar, ularning orasida ko‘rsatgan mo‘jizalaringni esga olmadilar. Shu qadar o‘jarlik qildilarki, Misrdagi qullikka qaytib borish uchun o‘zlariga yo‘lboshchi tayinladilar. Lekin Sen kechiradigan, inoyatli, rahmdil, jahli tez chiqmaydigan, sodiq sevgisi mo‘l Xudosan. Bizning ota–bobolarimiz o‘zlariga buqaning tasvirini yasab: «Mana bizlarni Misrdan olib chiqqan xudoyimiz», degan edilar. Shu tariqa o‘ta shakkoklik qilgan edilar. Hatto o‘shanda ham Sen ota–bobolarimizni tark etmading.

19 Sen g‘oyat rahmdil bo‘lganing uchun ota–bobolarimizni sahroda tashlab
ketmading. Ularni kunduzlari doim bulut ustuni bilan yo‘lda boshlab bording,
kechalari yura olsin deb, doim alanga ustuni bilan yo‘llarini yoritding. 20 Ularga
o‘git bersin deb, ezgu Ruhingni baxsh etding, ularning og‘zidan mannani*
uzmading, chanqoqlari bosilsin deb, suv berding. 21 Sen qirq yil sahroda ularga
g‘amxo‘rlik qilding, ular hech narsaga muhtojlik sezmadilar, kiyimlari to‘zmadi,
oyoqlari shishib ketmadi.
22 Sen ularga shohliklar va xalqlar ustidan g‘alaba ato qilding, qo‘lga kiritgan
yerning har bir parchasini taqsimlab berding. Ular Xashbon shohi Sixo‘nning
yurtini*, Bashan shohi O‘gning yurtini mulk qilib oldilar. 23 Sen ularning nasllarini
samodagi yulduzlar singari ko‘paytirding. Ota–bobolariga va’da qilgan yurtga
ularni olib kirding. 24 Ular borib, Kan’on yurtini mulk qilib oldilar. Sen ularga
Kan’on yurti aholisini bo‘ysundirib berding, bu yurtni shohlariyu mahalliy
xalqlari bilan birga ularning qo‘llariga berib: «Bularga istaganingizni qilinglar»,
deding. 25 Ota–bobolarimiz mustahkam shaharlarni, hosildor yerlarni qo‘lga
kiritdilar, ajoyib buyumlar bilan to‘la uylarga, qazilgan sardobalarga,
uzumzorlarga, zaytunzorlarga, ko‘plab mevali daraxtlarga ega bo‘ldilar. Yeb
to‘ydilar, semirdilar, Sening ulug‘ marhamatingdan ko‘ngillarini chog‘ qildilar.
26 Lekin shunga qaramay, ular yana itoatsizlik qilib, Senga qarshi bosh
ko‘tardilar. Qonunlaringni mensimadilar, «Egamizga qaytinglar», deb da’vat
qilgan payg‘ambarlaringni o‘ldirdilar. O‘taketgan shakkokliklar qildilar.
27 Shuning uchun Sen ularni dushmanlari qo‘liga berding, dushmanlari ularga
zulm o‘tkazdilar. Ular azob tortganlarida Senga iltijo qilishdi, Sen ularning
iltijolarini samodan turib eshitding. Buyuk rahm–shafqating tufayli ularga
qutqaruvchilarni yubording. Qutqaruvchilar ularni dushmanlari qo‘lidan xalos
qildilar. 28 Lekin hammasi yaxshi bo‘lgandan keyin, ular Sening oldingda yana
qabihlik qilishdi. Sen ularni yana dushmanlari qo‘liga berib, tark etding.
Dushmanlari ular ustidan hukmronlik qilishdi. Ota–bobolarimiz yana Senga yuz
burib, iltijo qilganlarida, samodan turib ularning iltijolarini eshitding. Sen
rahmdil bo‘lganing uchun ko‘p martalab ularga najot berding.
29 Qonunlarim bo‘yicha oldingiday yashanglar, deb ularni ogohlantirding.
Lekin ular o‘zlariga bino qo‘yib, Sening amrlaringga itoat etmadilar. Garchi
qonun–qoidalaringga amal qilish hayot bersa–da, ular bu qonun–qoidalaringga
qarshi gunoh qildilar, o‘jarlik bilan qonun–qoidalaringdan yuz o‘girdilar, itoat
etishdan bosh tortdilar. 30 Uzoq yillar Sen ularga sabr–toqat qilib kelding, Ruhing
ila payg‘ambarlar orqali xalqingni ogohlantirib kelding. Lekin ular Senga quloq
solmadilar. Shu sababdan Sen ularni taslim qilib, begona xalqlarning qo‘liga
berding. 31 Ammo shunday bo‘lsa ham, buyuk rahm–shafqating tufayli Sen ularni
qirib tashlamading, ularni tark etmading, chunki Sen inoyatli, rahmdil Xudosan!
32 Ey Xudoyimiz! Sen buyuk, qudratli va haybatli Xudosan! Sen ahdingda
turasan, sodiq sevgingni saqlaysan. Chekkan azob–uqubatlarimizdan ko‘z
yumma. Axir, Ossuriya shohlari davridan bugungacha shohlarimiz,
yo‘lboshchilarimiz, ruhoniylarimiz, payg‘ambarlarimiz, ota–bobolarimiz, butun
xalqimiz boshiga og‘ir azob–uqubatlar tushdi. 33 Sen bizni jazolab to‘g‘ri qilding.
Sen sadoqat bilan ish tutding, biz esa qabihlik qildik. 34 Shohlarimiz,

yo‘lboshchilarimiz, ruhoniylarimiz, ota–bobolarimiz Sening qonunlaringga rioya qilmadilar, Sen bergan amrlaringga, ogohlantirishlaringga ular quloq solmadilar.
35 Hatto o‘z shohligiga ega bo‘lgan paytlarida, Sen ularga buyuk marhamat
ko‘rsatgan bo‘lsang ham, ular Senga xizmat qilmadilar. Sen ularga keng, serhosil
bir yurt berding, lekin ular qabih ishlaridan qaytmadilar.
36 Mana, bugun biz qulmiz! Sen ota–bobolarimizga bergan yurtda biz qul
bo‘lib yashayapmiz. Sen esa bu yurtni ota–bobolarimizga mevalaridan, mo‘l–
ko‘lchiligidan bahramand bo‘lsin deb bergansan. 37 Ammo gunohlarimiz
oqibatida Sen bizni shohlarga tobe qilib qo‘yding. Yurtimizning mo‘l hosili
o‘shalarga ketadi. Ular bizga va chorvamizga xohlagan ishini qiladi. Evoh, og‘ir
kulfatda qoldik!”

Xalq Xudoga itoat etishga qaror qiladi

38 Xalq quyidagicha qaror qildi:

“Bo‘lib o‘tgan voqealar tufayli biz yozma ravishda qat’iy qaror qilyapmiz.
Yo‘lboshchilarimiz, levilarimiz va ruhoniylarimiz bu qarorga muhrlarini bosdilar.

10–BOB

1 Xaxaliyo o‘g‘li, hokim Naximiyo qarorni tasdiqlab, muhrladi. Zidqiyo ham
qarorga muhrini bosdi. Bulardan tashqari, qarorni muhrlaganlarning ismlari
quyidagichadir:

2 Sarayo, Ozariyo, Yeremiyo,
3 Pashxur, Emoriyo, Malkiyo,
4 Xattush, Shabaniyo, Mallux,
5 Xarim, Miromo‘t, Obodiyo,
6 Doniyor, Ginatoy, Borux,
7 Mashullom, Abiyo, Miyomin,
8 Maziyo, Bilgi, Shamayo.
Ular ruhoniylar edilar.

9 Levilar:

Ozaniyo o‘g‘li Yeshuva,
Xanadod urug‘idan Binnuy,
Kadmil,
10 ularning sheriklari:
Shabaniyo, Xo‘diyo,
Kilit, Paliyo, Xanon,
11 Mixa, Rexob, Xashaviyo,
12 Zakkur, Sharaviyo, Shabaniyo,
13 Xo‘diyo, Banix, Baninu.

14 Xalq yo‘lboshchilari:

Paroʻsh, Paxatmoʻab,
Elam, Zattu, Banix,
15 Boʻnax, Ozgad, Boʻvay,
16 Odoniyo, Bigʻvay, Adin,
17 Oter, Yoxizqiyo, Azzur,
18 Xoʻdiyo, Xashum, Bezay,
19 Xorif, Onotoʻt, Nabay,
20 Maxpiyosh, Mashullom, Xazir,
21 Mashazavil, Zodoʻx, Yodduva,
22 Pilatiyo, Xanon, Onoyoh,
23 Xoʻsheya, Xanoniyo, Xashshub,
24 Xalloxesh, Pilxo, Shoʻvex,
25 Raxum, Xashavno, Masiyo,
26 Oxiyo, Xanon, Onon,
27 Mallux, Xarim, Banax.

Qaror mazmuni

28 Biz, jamiki Isroil xalqi — ruhoniylar, levilar, Ma’bad darvozabonlari, qoʻshiqchilar, Ma’bad xizmatchilari va Xudoning qonuniga muvofiq oʻzlarini mahalliy xalqlardan ayirgan hamma yahudiylar xotinlari va esini tanigan oʻgʻil–qizlari bilan birga, 29 yoʻlboshchilarimiz qatorida ont ichamiz. Agar ontimizni buzsak, la’nati boʻlaylik. Xudo Oʻz quli Muso orqali bergan qonunga biz amal qilib yashaymiz. Egamiz Rabbiyning amrlariga, qonun–qoidalariga va farmonlariga rioya qilamiz.

30 Biz mahalliy xalqlar bilan quda–andachilik qilmaymiz.

31 Agar mahalliy odamlar Shabbat kuni yoki boshqa biror muqaddas kunda sotish uchun don yoki har xil mol olib kelishsa, ulardan hech narsa sotib olmaymiz.

Biz har yettinchi yili yerga ishlov bermaslikka va bergan hamma qarzlarimizdan voz kechib yuborishga va’da qilamiz.

32 Bundan tashqari, shuni va’da qilamizki, Xudoyimizning uyidagi sajda marosimlari ehtiyojlari uchun har yili bir misqol kumushni* topshiramiz. 33 Bu pullar quyidagi narsalar uchun sarf qilinadi: muqaddas nonlar uchun, kundalik don nazrlari uchun, kundalik kuydiriladigan qurbonliklar uchun, Shabbat kunida, yangi oy shodiyonasida, har yili oʻtkaziladigan bayramlarda keltiriladigan qurbonliklar, nazrlar va boshqa ehsonlar uchun, Isroil xalqini poklaganda qilinadigan gunoh qurbonliklari uchun, Xudoyimizning uyida qilinadigan boshqa sarf–xarajatlar uchun.

34 Biz qur’a tashlab*, ruhoniylar, levilar va xalqning har bir xonadoni qay vaqtda Xudoning uyi uchun oʻtin olib kelishlari kerakligini aniqlab oldik. Soʻng shunday va’da berdik: biz har yili belgilangan paytda oʻtin olib kelamiz. Shu yoʻl bilan Tavrotda, Egamiz Xudoning qurbongohida doimo olov yonib tursin, deb yozilgan amrni bajaramiz.

35 Biz har yili yerimizning birinchi hosilini va hamma mevali daraxtlarimizning birinchi hosilini Egamizning uyiga olib kelamiz, deb va’da

qilamiz. 36 Shuningdek, Tavrotda yozilganiga muvofiq, to‘ng‘ich o‘g‘illarimizni,
mol–qo‘ylarimizning birinchi tug‘ilganlarini Xudoyimizga bag‘ishlaymiz, deb
va’da qilamiz. Biz ularni Xudoyimizning uyida o‘z vazifasini o‘tayotgan
ruhoniylarga olib kelamiz. 37 Ruhoniylarga atalgan mahsulotlarni Xudoyimizning
uyidagi omborxonalarga olib kelamiz. Unimizning va boshqa don
mahsulotlarimizning a’losini, mevalarimizning a’losini, yangi sharob va zaytun
moyimizning a’losini omborxonalarga olib kelamiz.
Biz yerimizning hosilidan levilarga ushr* berishga va’da qilamiz.
Dehqonchilik bilan mashg‘ul bo‘lgan hamma shaharlarimizdan levilar ushr
yig‘adilar. 38 Levilar ushrni olayotganlarida, Horun naslidan bo‘lgan ruhoniy
ularning yonida bo‘ladi. Levilar ushrning o‘ndan birini Xudoyimizning uyiga olib
kelib, omborxonalarga joylashtiradilar.
39 Xullas, Isroil xalqi va levilar ehson qilgan don, sharob va zaytun moylarini
Ma’baddagi omborlarga olib kelishadi. Bu omborxonalar o‘z vazifasini o‘tayotgan
ruhoniylar, darvozabonlar va qo‘shiqchilarning xonalari yonida joylashgan bo‘lib,
u yerda Ma’bad buyumlari ham saqlanadi.
Biz Xudoyimizning uyini qarovsiz qoldirmaymiz, deb va’da beramiz.”

11–BOB

Quddusda joylashgan xalq

1 Xalq yo‘lboshchilari Quddusda o‘rnashib oldilar. Qolgan xalq esa qur’a tashladi*,
chunki har o‘nta xonadondan bittasi muqaddas Quddus shahriga ko‘chib borishi, qolgan
to‘qqiztasi boshqa shaharlarda qolishlari kerak edi. 2 O‘z xohishi bilan Quddusga ko‘chib
bormoqchi bo‘lganlarning hammasini xalq duo qildi.
3-4 Shunday qilib, Isroil xalqining ko‘pchiligi, ruhoniylar, levilar, Ma’bad
xizmatchilari, Sulaymon qarollarining avlodlari Yahudo yurtidagi boshqa shaharlarda,
o‘zlarining mulkida yashab qoldilar. Yahudo va Benyamin qabilalaridan ba’zilari esa
Quddusda qaytadan uy–joy qildilar.

Quddusda o‘rnashib olgan viloyat* yo‘lboshchilarining ro‘yxati quyidagichadir:

Yahudo qabilasidan:

Quddusda Uzziyo o‘g‘li Otayox o‘rnashdi. Otayoxning nasabnomasi
quyidagicha edi: Uzziyo — Zakariyoning o‘g‘li, Zakariyo — Emoriyoning o‘g‘li,
Emoriyo — Shafatiyoning o‘g‘li, Shafatiyo — Maxaliyolning o‘g‘li, Maxaliyol Paraz
naslidan edi.
5 Borux o‘g‘li Masiyo ham Quddusda o‘rnashdi. Masiyoning nasabnomasi
quyidagicha edi: Borux — Xolxozining o‘g‘li, Xolxozi — Xaziyoning o‘g‘li, Xaziyo
— Odayoning o‘g‘li, Odayo — Yo‘xarivning o‘g‘li, Yo‘xariv — Zakariyoning o‘g‘li,
Zakariyo Shelo naslidan edi.
6 Paraz naslidan Quddusda hammasi bo‘lib 468 nafar bahodir jangchi yashar
edi.

7 Benyamin qabilasidan:

Quddusda Mashullom oʻgʻli Sallu oʻrnashdi. Salluning nasabnomasi quyidagicha edi: Mashullom — Yoʻadning oʻgʻli, Yoʻad — Podiyoning oʻgʻli, Podiyo — Xulayoning oʻgʻli, Xulayo — Masiyoning oʻgʻli, Masiyo — Ixtiyolning oʻgʻli, Ixtiyol — Yeshayoning oʻgʻli.

8 Salluning izdoshlari Gabboy va Salloy ham Quddusda oʻrnashdilar.

Benyamin naslidan Quddusda hammasi boʻlib 928 nafar odam yashar edi.

9 Ularning lashkarboshisi Zixri oʻgʻli Yoʻel edi, Xassinuva oʻgʻli Yahudo esa Yoʻelning oʻng qoʻl yordamchisi edi.

10 Ruhoniylardan:

Quddusda Yoʻxariv oʻgʻli Yodayo, Yoxin 11 va oliy ruhoniy Sarayo oʻrnashdilar. Sarayoning nasabnomasi quyidagicha edi: Sarayo — Xilqiyoning oʻgʻli, Xilqiyo — Mashullomning oʻgʻli, Mashullom — Zodoʻxning oʻgʻli, Zodoʻx — Maroyoʻtning oʻgʻli, Maroyoʻt Oxitobning oʻgʻli edi. 12 Yodayo, Yoxin va Sarayoning Xudo uyida xizmat qiladigan qarindosh–urugʻlari hammasi boʻlib 822 nafar odam edi.

Yeroxam oʻgʻli Odayo ham Quddusda oʻrnashib oldi. Uning nasabnomasi quyidagicha edi: Yeroxam — Palaliyoning oʻgʻli, Palaliyo — Omzining oʻgʻli, Omzi — Zakariyoning oʻgʻli, Zakariyo — Peshxurning oʻgʻli, Peshxur — Malkiyoning oʻgʻli. 13 Odayoning qarindosh–urugʻlari orasida hammasi boʻlib 242 nafar urugʻboshi bor edi.

Ozariyol oʻgʻli Emashay ham Quddusda oʻrnashib oldi. Uning nasabnomasi quyidagicha edi: Ozariyol — Oxzayning oʻgʻli, Oxzay — Mashillamoʻtning oʻgʻli, Mashillamoʻt — Immarning oʻgʻli. 14 Emashayning qarindosh–urugʻlari orasida hammasi boʻlib 128 nafar botir jangchi bor edi.

Ruhoniylarning lashkarboshisi Xagdolim oʻgʻli Zabdiyol edi.

15 Levilardan:

Quddusda Xashshub oʻgʻli Shamayo oʻrnashdi. Uning nasabnomasi quyidagicha edi: Xashshub — Ozrikomning oʻgʻli, Ozrikom — Xashaviyoning oʻgʻli, Xashaviyo — Boʻnaxning oʻgʻli.

16 Levilarning yoʻlboshchilaridan boʻlgan Shabbatay va Yoʻzabad ham Quddusda oʻrnashib oldilar. Ularning vazifasi Xudoning uyiga qarash va ta’minotini nazorat qilish edi.

17 Mixa oʻgʻli Mattaniyo ham Quddusda oʻrnashib oldi. Uning nasabnomasi quyidagicha edi: Mixa — Zabdining oʻgʻli, Zabdi — Osifning oʻgʻli. Mattaniyo Ma’bad qoʻshiqchilarini hamdu sano aytishda boshqarar edi.

Mattaniyoning yordamchisi Bobuhyo va Shammuva oʻgʻli Abdax Quddusda oʻrnashib oldilar. Shammuva oʻgʻli Abdaxning nasabnomasi quyidagicha edi: Shammuva — Galolning oʻgʻli, Galol — Yodutunning oʻgʻli.

18 Muqaddas shahar Quddusda hammasi boʻlib 284 nafar levi yashagan edi.

19 Ma’bad darvozabonlaridan:

Oqquv, Talmoʻn va ularning qarindoshlari Quddusda oʻrnashib oldilar. Ular
hammasi boʻlib 172 kishi edi.

20 Isroil xalqining, ruhoniylarning va levilarning qolganlari Yahudo yurtidagi
shaharlarda, oʻzlarining mulkida istiqomat qilishardi. 21 Maʼbad xizmatkorlari esa
Quddusdagi Ofel tepaligida* istiqomat qilishardi. Zixo va Gishpo ularning ustidan
nazoratchi edilar.
22 Quddusdagi levilarning nazoratchisi Banix oʻgʻli Uzzi edi. Uning nasabnomasi
quyidagicha edi: Banix — Xashaviyoning oʻgʻli, Xashaviyo — Mattaniyoning oʻgʻli,
Mattaniyo — Mixaning oʻgʻli, Mixa Osif naslidan edi. Osif nasli Xudo uyidagi xizmatda
qoʻshiqchilar uchun masʼul edi. 23 Shoh Dovudning qoʻshiqchilar toʻgʻrisida chiqargan
farmoniga koʻra, qoʻshiqchilar har kuni moddiy tomondan taʼminlanar edi.
24 Mashazavil oʻgʻli Patixiyo Fors shohining Yahudodagi vakili boʻlib, Isroil xalqiga
oid hamma ishlarga masʼul edi. Patixiyo Yahudo oʻgʻli Zerax naslidan edi.

Quddusdan tashqarida yashagan xalq

25 Xalqning koʻpchiligi boshqa shaharlarda va oʻsha shaharlar atrofida yashar edilar.
Yahudo qabilasidan boʻlganlar quyidagi joylarda istiqomat qilar edilar:

Xirat–Arba shahrida va uning atrofidagi qishloqlarda,
Dibon shahrida va uning atrofidagi qishloqlarda,
Yoxavzol shahrida va uning atrofidagi qishloqlarda,
26 Yeshuva, Moʻlodax, Bayt–Palat va 27 Xazor–Shuvol shaharlarida,
Bersheba shahrida va uning atrofidagi qishloqlarda,
28 Zixlax shahrida,
Maxuno shahrida va uning atrofidagi qishloqlarda,
29 En–Rimmon, Zorox, Yarmut, 30 Zonoʻvax, Adullam shaharlarida va ularning
atrofidagi qishloqlarda,
Laxish shahrida va uning atrofidagi dalalarda,
Ozikah shahrida va uning atrofidagi qishloqlarda.

Yahudo qabilasi yashagan bu yerlar janubdagi Bershebadan to shimoldagi Xinnum
soyligigacha* choʻzilgan edi.
31 Benyamin qabilasidan boʻlganlar quyidagi joylarda istiqomat qilar edilar:

Gebo, Mixmash va Oya shaharlarida,
Baytil shahrida va uning atrofidagi qishloqlarda,
32 Onotoʻt, Nav, Ononiyoh, 33 Xazor, Rama, Gitayim, 34 Hodid, Zavoʻm, Navallot,
35 Loʻd, Onoʻ shaharlarida va
Hunarmandlar* vodiysida.

36 Yahudo qabilasining hududida yashagan baʼzi levi guruhlari ham Benyamin qabilasi
orasida istiqomat qilish uchun yuborilgan edi.

12–BOB

Ruhoniylar va levilar ro‘yxati

1 Shaltiyol o‘g‘li Zarubabel* va Yoshua bilan birga surgundan qaytib kelgan
ruhoniylar hamda levilar quyidagilardir:

Ruhoniylar:

Sarayo, Yeremiyo, Ezra,
2 Emoriyo, Mallux, Xattush,
3 Shaxaniyo, Raxum, Miromo‘t,
4 Iddo, Ginaton*, Abiyo,
5 Minyomin, Mo‘vadiyo*, Bildax,
6 Shamayo, Yo‘xariv, Yodayo,
7 Sallu, Omoq, Xilqiyo, Yodayo.

Bular Yoshua davridagi ruhoniylarning va ruhoniy hamkorlarining yetakchilari edilar.

8 Levilar:

Yeshuva, Binnuy, Kadmil, Sharaviyo, Yahudo va Mattaniyo.

Mattaniyo va uning hamkorlari shukrona madhiyasini kuylaydiganlar uchun mas’ul
edilar. 9 Bobuhyo, Unno va ularning hamkorlari madhiyaning jo‘r bo‘lib aytilishi uchun
mas’ul edilar.

Oliy ruhoniy Yoshuaning avlodlari

10 Yoshua — Yo‘yiqimning otasi, Yo‘yiqim — Eliashabning otasi, Eliashab —
Yo‘xadaxning otasi, 11 Yo‘xadax — Yo‘xanonning* otasi, Yo‘xanon Yodduvaning otasi edi.

Ruhoniy urug‘boshilari

12 Oliy ruhoniy Yo‘yiqim davrida quyidagi ruhoniylar urug‘boshilar edilar:

Sarayo urug‘idan — Moriyo.
Yeremiyo urug‘idan — Xanoniyo.
13 Ezra urug‘idan — Mashullom.
Emoriyo urug‘idan — Yohuxanon.
14 Mallux* urug‘idan — Yo‘natan.
Shaxaniyo* urug‘idan — Yusuf.
15 Xarim urug‘idan — Adna.
Miromo‘t* urug‘idan — Xalkay.
16 Iddo urug‘idan — Zakariyo.
Ginaton urug‘idan — Mashullom.
17 Abiyo urug‘idan — Zikri.
Minyomin urug‘idan ham bir urug‘boshi bor edi.
Mo‘vadiyo urug‘idan — Piltay.
18 Bildax urug‘idan — Shammuva.
Shamayo urug‘idan — Yo‘natan.

19 Yo‘xariv urug‘idan — Mattanay.
Yodayo urug‘idan — Uzzi.
20 Sallu* urug‘idan — Kalloy.
Omoq urug‘idan — Ibir.
21 Xilqiyo urug‘idan — Xashaviyo.
Yodayo urug‘idan — Natanil.

Levilar urug‘boshilari

22 Oliy ruhoniylar Eliashab, Yo‘xadax, Yo‘xanon va Yodduva davrlarida levilar ro‘yxatda o‘z urug‘boshilari nomi bilan qayd etilganlar. Fors shohi Doro* hukmronligi davrida esa ro‘yxatga olishning bunday usuli ruhoniylarga nisbatan qo‘llanilgan edi.
23 Oliy ruhoniy Eliashab nevarasi* Yo‘xanon davrigacha “Tarix kitobi”dagi ro‘yxatlarda levilar o‘z urug‘boshilari nomlari bo‘yicha yozilganlar.
24-25 Quyidagilar levilarning urug‘boshilari edilar:

Xashaviyo, Sharaviyo, Yeshuva, Binnuy, Kadmil* va ularning hamkorlari Mattaniyo, Bobuhyo va Obodiyo. Xudoning odami Dovud bergan farmonga ko‘ra, ular Xudoga hamdu sano va shukrona aytayotganlarida, ikki guruhga bo‘linib, bir–birlariga ro‘parama–ro‘para turib, kuylar edilar.
Mashullom, Talmo‘n va Oqquv Ma’bad darvozabonlari edilar. Ular Egamizning uyi darvozalari yonidagi omborxonalarni qo‘riqlar edilar.

26 Bu odamlar oliy ruhoniy Yo‘yiqim, hokim Naximiyo, ruhoniy hamda tafsirchi Ezraning zamondoshlari edilar. Oliy ruhoniy Yo‘yiqim — Yoshuaning o‘g‘li, Yohuzadaxning* nabirasi edi.

Naximiyo shahar devorini Xudoga bag‘ishlaydi

27 Quddusning yangi devori Xudoga bag‘ishlanayotganda Yahudo yurtidagi hamma levilar chaqirildi. Ular xursandchilik paytida shukrona qo‘shiqlar kuylab, zil, arfa, chang chalib, marosimda ishtirok etishlari kerak edilar. 28-29 Levi qo‘shiqchilari Quddus atrofidagi qishloqlardan yig‘ilib keldilar. Quddus atrofidagi o‘sha qishloqlarni levilar o‘zlari uchun qurgan edilar. Natufo, Bayt–Gilgal, Gebo va Ozmobit shaharlarining atrofidagi qishloqlarda yashaydigan levilar ham yig‘ilib keldilar. 30 Ruhoniylar va levilar o‘zlarini pokladilar, so‘ngra xalqni, Quddus darvozalarini va devorini pokladilar.
31 Keyin men* Yahudo yo‘lboshchilarini devor ustiga chiqardim. Xudoga shukrona aytadigan ikkita katta guruh qo‘shiqchilarni tayinladim. Qo‘shiqchilarning bir guruhi devor ustida janubga — Go‘ng darvozasi tomonga* tantana bilan yurdi. 32 Ho‘shayyo Yahudo yo‘lboshchilarining yarmini ergashtirib, birinchi guruh qo‘shiqchilarning orqasidan bordi. 33-35 Ularning orqasidan esa quyidagi ruhoniylar karnaylar chalib bordilar: Ozariyo, Ezra, Mashullom, Yahudo, Benyamin, Shamayo va Yeremiyo. Ularning ketidan Yo‘natan o‘g‘li Zakariyo bordi. Zakariyoning nasabnomasi quyidagicha edi: Yo‘natan — Shamayoning o‘g‘li, Shamayo — Mattaniyoning o‘g‘li, Mattaniyo — Mixiyoning o‘g‘li, Mixiyo — Zakkurning o‘g‘li, Zakkur Osaf naslidan edi. 36 Zakariyoning yonida uning hamkorlari — Shamayo, Ozariyol, Milalay, Jilalay, May, Natanil, Yahudo, Xoninni bor edilar. Ular Xudoning odami shoh Dovudning ko‘rsatmasiga binoan musiqa asboblarini ko‘tarib borardilar. Tafsirchi Ezra birinchi guruh qo‘shiqchilarining

orqasidan borayotganlarni boshlab bordi. 37 Ular Buloq darvozasidan Dovud qal’asiga
olib boradigan zinapoya orqali to‘g‘riga yurdilar. Dovudning saroyidan o‘tib, sharq
tomondagi Suv darvozasiga ketdilar.
38 Xudoga shukrona aytayotgan ikkinchi guruh qo‘shiqchilar devorning ustida shimol
tomonga ketdilar. Men Yahudo yo‘lboshchilarining yarmini boshlab, ikkinchi guruh
qo‘shiqchilarning ortidan ketdim. Biz Tandir darvozasidan, Keng devoridan, 39 Efrayim
darvozasidan, Yashono darvozasidan*, Baliq darvozasidan, Xanonil minorasidan, Yuz
minorasidan va Qo‘y darvozasidan o‘tdik. Nihoyat, Qo‘riqchi darvozasi yonidagi
manzilga yetib bordik. 40 Shunday qilib, Xudoga shukrona aytgan ikkala guruh Xudoning
uyi oldida to‘xtadi.
Yonimdagi yo‘lboshchilar bilan birga, 41 quyidagi ruhoniylar ham karnay chalib,
ikkinchi guruh qo‘shiqchilar ortidan yurdilar: Eliyaqim, Masiyo, Minyomin, Mixiyo,
Eliyo‘nay, Zakariyo va Xanoniyo. 42 Ularning ketidan Masiyo, Shamayo, Elazar, Uzzi,
Yohuxanon, Malkiyo, Elam va Eyzar borgandilar. Qo‘shiqchilar o‘zlarining yo‘lboshchisi
Yizraxiyo boshchiligida kuylagandilar.
43 O‘sha kuni xalq ko‘p qurbonliklar keltirib, xursandchilik qilishdi, chunki Xudo
ularga ko‘p shod–xurramlik ato qilgan edi. Ayollar va bolalar ham xursand edilar.
Quddusdagi shodlik sadolari uzoqlardan eshitilib turardi.

Ma’baddagi xizmatchilar uchun nazr va ushrlar

44 O‘sha kuni Ma’baddagi omborxonalar ustidan odamlar tayinlandi.
Omborxonalarda hadyalar, birinchi hosildan keltirilgan nazrlar va ushrlar* saqlanar edi.
Tayinlangan odamlar, qonunga ko‘ra, shaharlar atrofidagi dalalardan ruhoniylar va
levilar uchun ushrlarni yig‘ib, omborxonalarga olib kelishlari kerak edi. Chunki Yahudo
xalqi ruhoniylar va levilarning xizmatini qadrlar edi. 45 Ruhoniylar, levilar poklash
marosimlarini va Xudo tayin etgan boshqa marosimlarni bajarar edilar. Qo‘shiqchilar va
darvozabonlar ham, ular qatorida, shoh Dovud va uning o‘g‘li Sulaymondan qolgan
farmonga muvofiq, Ma’badda xizmat qilar edilar. 46 Darvoqe, qo‘shiqchilarga boshlovchi
tayinlab, Xudoga hamdu sano va shukronalar aytish odati azaldan — Dovud va Osif
davridan boshlangan edi. 47 Zarubabel davrida ham, Naximiyo* davrida ham butun Isroil
xalqi qo‘shiqchilar va Ma’bad darvozabonlari uchun kundalik ulushlarni berardi. Ular
levilar uchun ham ulush ajratishardi, levilar esa ruhoniylarning ulushini ajratib berishar
edi.

13–BOB

Isroil xalqi begona nasllardan ajraladi

1 O‘sha kuni xalqqa Musoning kitobidan o‘qib berildi. U yerda shunday yozilgan
ekan*: “Ommonliklar va Mo‘abliklar Xudoning jamoasiga kirolmaydi, 2 chunki Isroil xalqi
Misrdan chiqqanda, Ommonliklar va Mo‘abliklar ularni non va suv bilan kutib olmadilar.
Aksincha, Isroil xalqini la’natlash uchun Balomni yolladilar*. Lekin Xudoyimiz la’natni
duoga aylantirdi.” 3 Isroil xalqi Tavrot so‘zlarini eshitgach, Isroil jamoasidan hamma
begona nasllarni chiqarib yubordi.

Naximiyoning islohotlari

Naximiyo Ma’bad xizmatkorlarining ta’minoti to‘g‘risida qoidalar joriy qiladi

4 Bu voqea Quddus devori bag‘ishlanishidan ancha oldin sodir bo‘lgan edi. O‘sha
vaqtda To‘viyoning* qarindoshi Eliashab Xudoyimizning uyidagi omborxonalar uchun
mas’ul edi. 5 Eliashab To‘viyo uchun Ma’badga qarashli katta bir xonani bo‘shatib
beribdi. Ilgari bu xonada nazr qilingan don, xushbo‘y tutatqilar va Ma’bad buyumlari
saqlanardi. Egamiz bergan amrga muvofiq, levilarga, qo‘shiqchilarga, Ma’bad
darvozabonlariga atalgan don, sharob, zaytun moyi ushrlari* va ruhoniylarga atalgan
nazrlar ham o‘sha xonada saqlanardi.
6 Bu ishlar sodir bo‘lganda, men* Quddusda emasdim. Bobil shohi Artaxshas
hukmronligining o‘ttiz ikkinchi yilida* men shoh huzuriga ketgan edim. Ma’lum vaqt
o‘tgach, shohdan ijozat so‘rab, 7 Quddusga qaytib keldim. Shundagina Eliashabning
qilgan bu rasvo ishidan xabardor bo‘ldim. U To‘viyoga Xudoning uyidagi bir xonani
ajratib beribdi–ya! 8 Men qattiq g‘azablanib, To‘viyoning barcha uy jihozlarini xonadan
uloqtirib tashladim. 9 So‘ng, omborxonalar poklansin, deb buyruq berdim.
Omborxonalar poklangach, Xudoning uyi buyumlarini, don nazrlarini va xushbo‘y
tutatqilarni o‘z joyiga qaytarib qo‘ydirdim.
10 Shuningdek, levilarga hosilning o‘zlariga tegishli ulushlari berilmaganini ham bilib
qoldim. Shu sababdan Ma’badda xizmat qilib yurgan levilar va qo‘shiqchilar o‘zlarining
dalalariga qaytib ketishgan ekan. 11 Yo‘lboshchilarga: “Nima uchun Xudoning uyini o‘z
holiga tashlab qo‘ydingizlar?!” deb tanbeh berdim. Levilar va qo‘shiqchilarni to‘plab,
hammalarini o‘z vazifalariga qo‘ydim. 12 Shundan keyin jamiki Yahudo xalqi don, sharob,
zaytun moyi ushrlarini Ma’bad omborxonalariga olib kelishdi. 13 Ruhoniy Shalamiyoni,
kotib Zodo‘xni va levilardan Podiyoni omborxonalarga mas’ul qilib tayinladim.
Mattaniyoning nabirasi Zakkur o‘g‘li Xanonni ularning yordamchisi qilib tayinladim.
Ular ishonchli odamlar bo‘lib, vazifalari birodarlariga ulushni taqsimlashdan iborat edi.

14 Ey Xudoyim! Qilgan bu ishlarimni yodingda tut, mendan marhamatingni darig‘
tutmagin. Sening uying uchun va uyingda o‘tkaziladigan sajda marosimlari uchun
sadoqat bilan qilgan savob ishlarimni unutma.

Naximiyo Shabbat qoidalarini joriy qiladi

15 O‘sha vaqtda men Shabbat kunlari uzum ezayotgan yahudiylarni* ko‘rardim.
Uyum–uyum don, sharob, uzum, anjir va har xil yuklarni olib kelayotganlarni kuzatar
edim. Ular bu narsalarni eshaklarga yuklab, Shabbat kuni Quddusga olib kelishar edi.
Ular o‘z mahsulotlarini sotayotganlarida, men ularni ogohlantirib, bunday ishlarni
Shabbat kuni qilmanglar, deb aytardim. 16 Quddusda yashayotgan Tirliklar* ham baliq
va har xil mahsulotlarni olib kelib, o‘shalarni Shabbat kuni Yahudo xalqiga Quddusda
sotayotgan edilar. 17 Men Yahudo yo‘lboshchilariga tanbeh berdim: “Bu
qilayotganlaringiz qabihlik–ku! Axir, Shabbat kunini bulg‘ayapsizlar! 18 Xudo bizni va bu
shaharni ota–bobolarimizning xuddi shunday qabihligi uchun jazolagan edi–ku! Endi
esa sizlar Shabbat kunini bulg‘ab, xalqimizning boshiga Xudoning qahr–g‘azabini yanada
ko‘proq olib kelyapsizlar.”
19 Shunda men buyruq berdim: “Shabbatdan oldin oqshom tushishi bilanoq* Quddus
darvozalari yopilsin, Shabbat tugamaguncha ochilmasin.” Shabbat kuni birortasi yuk

olib chiqmasligi uchun darvoza oldiga odamlarimdan* ba'zilarini o'tqazib qo'ydim.
20 Shunda savdogarlar va har xil mahsulotlarni sotuvchilar tunni bir–ikki marta
Quddusdan tashqarida o'tkazdilar. 21 Men ularni ogohlantirib, shunday dedim: "Nega
sizlar tunni devor ortida o'tkazasizlar?! Agar yana shunday qilsangiz, sizlarni
qamayman." O'shandan keyin ular Shabbat kuni kelmay qo'ydilar. 22 So'ngra men
levilarga, o'zlaringizni poklab kelib, Shabbat kunini muqaddas saqlash uchun shahar
darvozalarini qo'riqlanglar, deb buyruq berdim.

Ey Xudoyim! Qilgan bu ishlarimni ham yodingda tut, mendan marhamatingni darig' tutmagin. Buyuk sodiq sevging haqi menga shafqat qil.

Naximiyo begona xalqlar bilan quda–andachilik qilishni man etadi

23 O'sha kunlarda Ashdodlik*, Ommonlik va Mo'ablik ayollarga uylangan yahudiylar
haqida xabar topgan edim. 24 Bolalarining yarmi ibroniy tilida gaplashishni bilmasdilar,
Ashdod tilida yoki boshqa tilda so'zlashardilar. 25-27 Shuning uchun men ularga tanbeh
berdim, ularni la'natladim, ba'zilarini urdim, sochlarini yuldim. Ularga shunday dedim:
"Hatto Isroil shohi Sulaymon bunday ayollarga uylanib, gunoh qilgan edi! Bir o'ylab
ko'ringlar! Xalqlar orasida Sulaymonga o'xshagan shoh yo'q edi. Xudo uni yaxshi ko'rib,
uni butun Isroil ustidan shoh qilgan edi. Shunga qaramay, butparast ayollar uni gunohga
boshladilar. Mana endi sizlar ham xuddi shunday gunohga qo'l urganingizni eshitib
turibman! Sizlar Xudoga qarshi o'taketgan qabihlik qilyapsizlar! Butparast ayollarga
uylanib, Xudoga xiyonat qilyapsizlar!" Men Xudoning nomini o'rtaga qo'yib: "Biz bu
yerdagi begona xalqlar bilan quda–andachilik qilmaymiz", deb ularga qasam ichdirdim.
28 Yo'xadax oliy ruhoniy Eliashabning o'g'li edi. Yo'xadaxning o'g'illaridan biri Bayt–
Xo'ronlik Sanballatning* qiziga uylangan edi. Yo'xadaxning o'sha o'g'lini oldimdan
haydab yubordim.

29 Ey Xudoyim! Bu uchala odamning qilmishini yodingda tut, ularning jazosini ber. Axir, ular ruhoniylikni bulg'adilar*, Sen ruhoniylar va levilar bilan tuzgan ahdni* buzdilar.

Naximiyoning so'nggi islohotlari

30 Shunday qilib, men xalqni begonalarning ta'siridan pokladim. Ruhoniylar va
levilarning burchlarini, har birining vazifasini belgilab berdim. 31 Qurbonliklarni
kuydirish uchun o'tinlarni o'z vaqtida olib kelishni va birinchi hosildan ruhoniylar
uchun nazrlarni olib kelishni yo'lga qo'ydim.

Ey Xudoyim! Qilgan ishlarimni yodingda tut, mendan marhamatingni darig' tutmagin.

IZOHLAR

Fors shohi Artaxshas — Artakserks ismi bilan ham tanilgan bo‘lib, miloddan oldingi 465-424 yillarda hukmronlik qilgan.

1:1 *Quyidagilar…Naximiyoning xotiranomasidir* — kitobning aksariyat qismi Naximiyo tomonidan, ya’ni birinchi shaxs tilidan hikoya qilingan (1:1-7:73, 12:27-43, 13:1-31), kitobda uchinchi shaxsdan bayon qilingan ayrim parchalarnigina uchratishimiz mumkin (8:1-12:26, 12:44-47).

1:1 *Shoh Artaxshas hukmronligining yigirmanchi yili* — miloddan oldingi 445 yil. Artakserks ismi bilan ham tanilgan bo‘lib, miloddan oldingi 465-424 yillarda Fors shohligida hukmronlik qilgan.

1:1 *Xislav oyi* — ibroniy kalendarining to‘qqizinchi oyi. Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan noyabrning o‘rtasidan boshlanadi.

1:1 *Shushan* — Elam viloyatining poytaxti bo‘lib, Bobildan sharqda joylashgan edi. Shushan qal’asi Fors shohlarining qishki qarorgohi edi.

1:2 *ukam* — yoki *akam*.

1:3 *Viloyat* — Furot daryosining g‘arbidagi viloyat nazarda tutilgan. 2:7 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

1:8 *quling Musoga bergan va’dang* — Qonunlar 30:1-4 ga qarang. Shu bobning 8-9–oyatlaridagi Naximiyoning iltijosi Qonunlar kitobida Xudo bergan va’daning aynan ko‘chirmasi emas, balki o‘zgartirilgan ifodasidir.

1:11 *shohning soqiysi* — shohga o‘z qo‘li bilan sharob quyadigan, saroyda yuqori martabaga ega bo‘lgan, ishonchga loyiq a’yon. Shuningdek, u shoh uchun sharob tanlashi va uni tatib ko‘rib, zaharli emasligiga ishonch hosil qilishi kerak edi.

2:1 *Shoh Artaxshas hukmronligining yigirmanchi yili* — 1:1 ning ikkinchi izohiga qarang.

2:1 *Nison oyi* — ibroniy kalendarining birinchi oyi (Nison oyi Abib oyi deb ham ataladi). Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan martning o‘rtasidan boshlanadi.

2:7 *Furot daryosining g‘arbidagi viloyat* — Fors shohligiga qarashli bo‘lgan katta bir viloyat. Bu viloyat Furot daryosi bilan O‘rta yer dengizi oralig‘ida joylashgan bo‘lib, Yahudo yurtini ham o‘z ichiga olgan edi.

2:10 *Bayt–Xo‘ronlik Sanballat* — Fors shohligiga qarashli bo‘lgan Samariya viloyatining hokimi. Quddusdan qariyb 20 kilometr shimoli–sharqda joylashgan Bayt–Xo‘ron shahri, Quddusga olib boradigan asosiy yo‘lni dushmanlardan muhofaza qilar edi.

2:13 *Ajdar bulog‘i* — yoki *Chiyabo‘ri bulog‘i*.

2:15 *Qidron soyligi* — Quddus shahridan sharqda joylashgan. Soylik — ikki adir oralig‘idagi pastlik. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi SOYLIK so‘ziga qarang.

3 *Quddus devori ta’mirlanadi* — Naximiyo bu bobda bergan hisobotiga ko‘ra, devorni ta’mirlash ishlari shaharning shimol tomonidan, devor o‘rtasidan boshlanib, soat strelkasiga teskari yo‘nalishda davom etgan.

3:1 *Miyo* — ibroniychada *yuz* sonini bildiradi. Ehtimol, bu minora yuzboshining qarorgohi bo‘lgandir. Minoraning nomi u yerdagi zinalarning soniga asoslangan bo‘lishi ham mumkin.

3:5 *…qurilish nazoratchilari buyurgan ishlardan…* — yoki *…hokimi (ya’ni Naximiyo) buyurgan ishlardan…* yoxud *…o‘zlarining Rabbiysi uchun bo‘lgan ishdan….*

3:6 *Yashono darvozasi* — Yashono shahriga ketadigan yo‘l boshida bo‘lgani uchun shu nom bilan atalgan bo‘lishi mumkin. Yashono shahri Quddusdan 25 kilometr shimolda joylashgan. Ibroniychada *yashono* so‘zi *Eski shahar darvozasi* degan ma’noni anglatadi. Ehtimol, darvozaning nomi aynan shu ma’noga asoslangandir.

3:7 *Furot daryosining g‘arbidagi viloyat* — 2:7 izohiga qarang.

3:13 *ming tirsak* — taxminan 450 metrga to‘g‘ri keladi.

3:15 *Siloam* — ibroniycha matnda bu nomning boshqa varianti *Shilax*.

3:18 *Binnuy* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Bovay*. Uning Binnuy degan shakli shu bobning 24–oyatidan olingan (yana 10:9 ga qarang).

3:19 *g‘isht tirgovuchi* — yoki *devor burchagi*. Shu bobning 20, 24, 25–oyatlarida ham bor.

3:21 *Miromo‘t* — shu bobning 4–oyatida ham aytib o‘tilgan. U devorning bir qismini ta’mirlab bo‘lgach, boshqa qismini ta’mirladi.

3:24 *Binnuy* — shu bobning 18–oyatida ham aytib o‘tilgan. U devorning bir qismini ta’mirlab bo‘lgach, boshqa qismini ta’mirladi.

3:26 *Ofel tepaligi* — ko‘hna Quddus shahri aynan shu tepalik ustida joylashgan bo‘lishi mumkin. Shaharning bu qismi yana “Dovud qal’asi” deb atalar edi.

3:27 *Taxuvalik erkaklar* — shu bobning 5–oyatida ham aytib o‘tilgan. Ular devorning bir qismini ta’mirlab bo‘lgach, boshqa qismini ta’mirladilar.

3:31 *Nazorat* — ibroniycha matnda *Hamifad*, ma’nosi *nazorat*.

4:5 *…binokorlar oldida Seni haqorat qildilar* — yoki *…binokorlarni haqorat qildilar*.

4:7 *Ashdod* — bu shahar Filistiyada, O‘rta yer dengizi yaqinida joylashgan edi. Filistlar Isroil xalqining dushmani bo‘lib, Ommonliklar bilan ittifoq tuzishgan edi.

4:12 *…har tomondan…bizni shunday deb ogohlantirishdi: “Xavf ostida qoldingizlar…biz bilan yashanglar”* — yoki *…bizni shunday deb ogohlantirishdi: “Xavf ostida qoldingizlar. Ular hamma tomondan ustingizga bostirib kelishmoqchi.”*

4:16-17 *odamlarim* — hokim Naximiyoning shaxsiy soqchilari.

5:13 *…belbog‘imni yechib qoqdim…* — qimmatbaho shaxsiy buyumlar ko‘pincha belboqqa qistirib qo‘yilardi. Belbog‘ni yechib qoqish la’nat belgisi bo‘lib, hamma narsadan mahrum bo‘lishni bildirardi.

5:14 *…Artaxshas hukmronligining yigirmanchi yilidan to o‘ttiz ikkinchi yiligacha…* — taxminan miloddan oldingi 445-433 yillar. 1:1 ning ikkinchi izohiga qarang.

5:15 *qirq kumush tanga* — ibroniycha matnda *qirq shaqal kumush*, taxminan yarim kiloga to‘g‘ri keladi.

5:16 *Odamlarim* — 4:16-17 ga va o‘sha oyatlarning izohiga qarang.

5:18 *og‘ir soliqlar* — Fors shohiga to‘lanadigan o‘lponga ishora (shu bobning 4–oyatiga qarang).

6:2 *Ono‘ tekisligi* — Sanballatning ona shahri Bayt–Xo‘ron yaqinida, Quddusdan qariyb 30 kilometr shimoli–g‘arbda joylashgan (2:10 ga qarang).

6:2 *qishloqlardan biri* — ibroniycha matnda *kafirim*, tarjimasi *qishloqlardan biri*. *Kafirim* qishloqning nomi bo‘lishi ham mumkin.

6:6 *Gashim* — ibroniycha matnda bu nomning boshqa varianti *Gashmu*.

6:10 *...shunday dedi...* — Shamayo o‘z nutqida yuqori adabiy uslubdan foydalanib, payg‘ambar kabi gapirgan.

6:10 *...Muqaddas xonasiga kirib olaylik...* — Shamayo Naximiyoni aldab, sha’niga dog‘ tushiradigan ishga undamoqchi edi va shu orqali uning jonini xavf ostiga qo‘ymoqchi edi. Chunki Muqaddas xonaga faqatgina ruhoniylar kirishga haqli edilar, u yerga kirishga jur’at etgan har qanday boshqa odam o‘limga mahkum etilardi.

6:15 *Elul oyi* — ibroniy kalendarining oltinchi oyi. Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan avgustning o‘rtasidan boshlanadi. Naximiyo shoh Artaxshas bilan gaplashganiga olti oy bo‘lgandi (2:1 ga va o‘sha oyatning izohlariga qarang).

6:18 *...Shaxaniyo...Mashullom...* — To‘viyoning qaynatasi bilan qudasi yahudiy edilar. Ehtimol, ular jamiyatning nufuzli oilalaridan bo‘lgan (3:4, 29, 30 da ular devorni ta’mirlashga yordam berganlari haqida yozilgan).

7:1 *Ma’bad darvozabonlari* — ularning vazifalari tafsiloti 1 Solnomalar 9:22-29 da berilgan.

7:2 *ukam* — yoki *akam*.

7:3 *Kun issiq paytida Quddus darvozalarini ochiq qoldirmanglar* — yoki *Quddus darvozalarini quyosh tepaga ko‘tarilgandan keyingina ochinglar*.

7:5 *Yahudoga surgundan birinchi bo‘lib qaytib kelganlar* — bu odamlar Yahudo yurtiga miloddan oldingi 539 yilda qaytib kelgan bo‘lishlari mumkin. O‘sha yili Midiya va Fors lashkarlari shoh Kurush boshchiligida Bobil shahrini bosib olgan edilar. Shoh Kurush yana Kir ismi bilan tanilgan.

7:6-7 *Bobil shohi Navuxadnazar asir qilib olib ketgan yahudiylar* — Navuxadnazar miloddan oldingi 605-562 yillarda Bobilda hukmronlik qilgan. Miloddan oldingi 586 yilda u Quddusni vayron qilib, aholining asosiy qismini Bobilga surgun qilgan edi (4 Shohlar 25:1-21 ga qarang).

7:6-7 *Ozariyo* — Ezra 2:1-2 ning ibroniycha matnida bu ismning boshqa varianti *Sarayo*. Shu bobning 6-62–oyatlarida keltirilgan ro‘yxatdagi ba’zi ismlar Ezra kitobining 2:1-60 ro‘yxatidagi ismlardan bir oz farq qiladi.

7:57 *Sulaymon qarollari* — 3 Shohlar 9:20-21 va 2 Solnomalar 8:7-8 ga qarang.

7:65 *Yahudo hokimi* — bu o‘rinda qaysi Yahudo hokimi haqida gap ketayotgani aniq emas. Bu paytda Zarubabel hokimlik qilgan, deb taxmin qilish mumkin (Ezra 2:1-2, 3:2, 4:2 va Xaggey 2:2, 21 ga qarang).

7:65 *Urim va Tummim* — ayrim hollarda ruhoniylar Xudoning xohishini bilish uchun foydalanadigan ikkita muqaddas narsa. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun Chiqish

28:15 ning ikkinchi izohiga qarang.

7:66 *42.360* — shu bobning 8-62–oyatlarida ro‘yxati berilgan odamlarning jami 42.360 ta emas, balki 29.818 ta. Oyatda qaytib kelgan odamlarning umumiy soni berilgan, ro‘yxatga esa Yahudo yurtiga qaytib kelgan ba’zi odamlargina kiritilgan bo‘lishi mumkin.

7:70 *1000 oltin tanga* — ibroniycha matnda *1000 oltin darik*. Darik oltin tanga bo‘lib, taxminan 8 grammga to‘g‘ri keladi, demak, berilgan oltinning umumiy og‘irligi taxminan 8 kiloga to‘g‘ri keladi.

7:71 *20.000 oltin tanga* — ibroniycha matnda *20.000 oltin darik*. Darik oltin tanga bo‘lib, taxminan 8 grammga to‘g‘ri keladi, demak, berilgan oltinning umumiy og‘irligi taxminan 160 kiloga to‘g‘ri keladi. Shu bobning 72–oyatida ham bor.

7:71 *80 pud* — ibroniycha matnda *2200 mina*, taxminan 1,3 tonnaga to‘g‘ri keladi.

7:72 *75 pud* — ibroniycha matnda *2000 mina*, taxminan 1,2 tonnaga to‘g‘ri keladi.

7:73 *Yettinchi oy* — 8:2 izohiga qarang.

8:2 *yettinchi oy* — ibroniy kalendarining Tishri oyi nazarda tutilgan (Tishri oyi Itanim oyi deb ham ataladi). Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan sentabrning o‘rtasidan boshlanadi. Naximiyo shoh Artaxshas bilan gaplashganiga yetti oy bo‘lgandi (2:1 ga va o‘sha oyatning izohlariga qarang).

8:8 *…tarjima qilib berardilar…* — Tavrot kitobi ibroniy tilida yozilgan edi, ammo Bobilga surgun qilingan yahudiylarning aksariyati ona tilini unutib, oramiy tilida so‘zlashardilar. Oramiy tili Bobil yurtining tili edi.

8:9 *Naximiyo* — 1:1 ning birinchi izohiga qarang.

8:10 *Ezra* — yoki *Naximiyo*. Ibroniycha matnda *u*.

8:14 *Bu amrga ko‘ra…* — Levilar 23:33-43 ga qarang.

8:14 *yettinchi oy* — 8:2 izohiga qarang.

8:15 *mirta butasi* — doim yashil, xushbo‘y o‘simlik.

8:16 *…uylarining tomlarida…* — u zamonlarda uylarning tomi tekis bo‘lib, odamlar tomga chiqib dam olishardi.

9:1 *Yettinchi oy* — ibroniycha matnda *O‘sha oy*. 8:2 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

9:9 *Qizil dengiz* — ibroniycha matnda *Yom–Suf*, ma’nosi *Qamish dengizi*. Bu oyatdagi mana shu nom ostida hozirgi Suets qo‘ltig‘i (ya’ni Qizil dengizning shimoli–g‘arbidagi qo‘ltiq) yoki Suets qo‘ltig‘i va O‘rta yer dengizi oralig‘ida joylashgan ko‘llardan biri nazarda tutilgan. Chiqish 14:10-31 dagi hodisalarning tafsilotiga ko‘ra, bu dengiz kattaligidan Isroil xalqiga to‘siq bo‘lgan, chuqurligidan Misr lashkari cho‘kib ketgan.

9:20 *manna* — Isroil xalqi Misrdan chiqqandan keyin to Kan’on yurtiga kirguncha, Xudo ularga yetkazib turgan maxsus yegulik. Manna, Shabbat kunidan tashqari, har kuni kechasi yerga yog‘ilardi, odamlar saharda turib, uni yig‘ib olishardi (Chiqish 16:13-35, Yoshua 5:12 ga qarang).

9:22 *…Xashbon shohi Sixo‘nning yurtini…* — bitta ibroniy qo‘lyozmasidan, qadimiy yunoncha va lotincha tarjimalardan. Ibroniycha matnda *…Sixo‘nning yurtini, Xashbon*

shohining yurtini….

10:32 *bir misqol kumush* — ibroniycha matnda *bir shaqalning uchdan bir qismi*, taxminan 4 grammga to‘g‘ri keladi.

10:34 *…qur’a tashlab…* — qur’a tashlashda yog‘och bo‘laklari yoki toshlar ishlatilgan bo‘lib, shu orqali Xudoning xohish–irodasi aniqlangan. Ba’zan odamlar qur’a tashlab, Xudodan biror ishni qanday yoki qachon qilish kerakligini so‘rashgan.

10:37 *ushr* — har qanday daromadning o‘ndan bir qismi. Levilar 27:30-33, Qonunlar 14:22-29, 26:12-13 ga qarang.

11:1 *…qur’a tashladi…* — 10:34 izohiga qarang.

11:3-4 *viloyat* — Furot daryosining g‘arbidagi viloyat nazarda tutilgan. 2:7 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

11:21 *Ofel tepaligi* — 3:26 izohiga qarang.

11:30 *Xinnum soyligi* — Quddus shahridan janubda joylashgan.

11:35 *Hunarmandlar* — ibroniycha matnda *Xarashim*, ma’nosi *hunarmandlar*.

12:1 *Shaltiyol o‘g‘li Zarubabel* — Ezra 3:2 ning ikkinchi izohiga qarang.

12:4 *Ginaton* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Ginatoy*. Uning Ginaton degan shakli shu bobning 16–oyatidan olingan.

12:5 *…Minyomin, Mo‘vadiyo…* — ibroniycha matnda bu ismlarning boshqa variantlari *Miyomin, Madiyo*. Ularning Minyomin va Mo‘vadiyo degan shakllari shu bobning 17–oyatidan olingan.

12:11 *Yo‘xanon* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Yo‘natan*. Uning Yo‘xanon degan shakli shu bobning 22–oyatidan olingan.

12:14 *Mallux* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Malixi*. Uning Mallux degan shakli shu bobning 2–oyatidan olingan.

12:14 *Shaxaniyo* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Shabaniyo*. Uning Shaxaniyo degan shakli shu bobning 3–oyatidan olingan.

12:15 *Miromo‘t* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Maroyo‘t*. Uning Miromo‘t degan shakli shu bobning 3–oyatidan olingan.

12:20 *Sallu* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Salloy*. Uning Sallu degan shakli shu bobning 7–oyatidan olingan.

12:22 *Fors shohi Doro* — miloddan oldingi 522-486 yillarda hukmronlik qilgan. Ammo bu yerda miloddan oldingi 423-404 yillarda hukmronlik qilgan Doro II yoki miloddan oldingi 335-331 yillarda hukmronlik qilgan Doro III nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin.

12:23 *nevarasi* — ibroniycha matnda *o‘g‘li*. Aslida Yo‘xanon Eliashabning nevarasi edi (shu bobning 10-11–oyatlariga qarang). Ibroniychada *o‘g‘il* so‘zi *nasl* ma’nosida ham ishlatiladi.

12:24-25 *…Yeshuva, Binnuy, Kadmil…* — ibroniycha matnda *…Kadmil o‘g‘li Yeshuva…* (ammo shu bobning 8–oyatiga qarang). Ibroniychada *Kadmil o‘g‘li Yeshuva* iborasi va *Yeshuva, Binnuy, Kadmil* iborasi o‘zaro ohangdosh.

12:26 *Yohuzadax* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Yo‘zadax*.

12:31 *men* — ya'ni Naximiyo (1:1 ning birinchi izohiga qarang).

12:31 *Qo'shiqchilarning bir guruhi…Go'ng darvozasi tomonga…* — bu guruh va mazkur bobning 38–oyatida aytib o'tilgan ikkinchi guruh tantanali yurishini Soylik darvozasidan boshlagan bo'lishlari mumkin. Soylik darvozasi shahar devorining janubi–g'arb tomonida joylashgan. Ikkala guruh shahar devori ustidan ikki tomonga yurib, Ma'bad qarshisida, ya'ni shahar devorining shimoli–sharq tomonida uchrashishgan (shu bobning 39-40–oyatlariga qarang).

12:39 *Yashono darvozasi* — 3:6 izohiga qarang.

12:44 *ushrlar* — 10:37 izohiga qarang.

12:47 *Naximiyo* — 1:1 ning birinchi izohiga qarang.

13:1 *U yerda shunday yozilgan ekan…* — Qonunlar 23:3-5 ga qarang.

13:2 *…Isroil xalqini la'natlash uchun Balomni yolladilar* — Sahroda 22:1-24:25 ga qarang.

13:4 *To'viyo* — u Ommonlik edi (2:10 ga qarang).

13:5 *ushrlar* — 10:37 izohiga qarang.

13:6 *men* — ya'ni Naximiyo (1:1 ning birinchi izohiga qarang).

13:6 *Bobil shohi Artaxshas hukmronligining o'ttiz ikkinchi yili* — taxminan miloddan oldingi 433 yil (1:1 ning ikkinchi izohiga qarang). Bobil shohligini forslar bosib olganlari uchun, Fors shohi Artaxshasni Bobil shohi Artaxshas deb ham atashardi.

13:15 *uzum ezayotgan yahudiylar* — qadimgi paytlarda odamlar uzumni qoyatoshga o'yilgan chuqurga yoki tuproqdan qazilgan, tubiga va atrofiga zich qilib tosh terilgan chuqurga solib, sharbatini siqib olish uchun oyoqlari bilan ezardilar. Sharbat o'sha chuqurdan yana boshqa bir chuqurga oqib tushardi.

13:16 *Tir* — Finikiyada muhim ahamiyatga ega bo'lgan shahar. Bu shahar Isroildan shimolda, O'rta yer dengizi bo'yida joylashgan edi. Bugungi kunda bu yer Livan mamlakatining janubiy qismini tashkil qiladi.

13:19 *…oqshom tushishi bilanoq…* — yahudiylarning urf–odatiga ko'ra, yangi kun quyosh botgandan keyin boshlanar edi.

13:19 *odamlarim* — 4:16-17 izohiga qarang.

13:23 *Ashdod* — 4:7 izohiga qarang.

13:28 *Bayt–Xo'ronlik Sanballat* — 2:10 izohiga qarang. Sanballat yahudiylarning, jumladan, Naximiyoning dushmani edi (2:10, 19, 4:1, 7 ga qarang).

13:29 *…ular ruhoniylikni bulg'adilar…* — oliy ruhoniyning nabirasi begona xalqdan bo'lgan qizga uylangani nazarda tutilgan (Levilar 21:13-15 ga qarang).

13:29 *Sen ruhoniylar va levilar bilan tuzgan ahd* — Xudo Levi qabilasidan bir oilani, ya'ni Horunning avlodini Isroil xalqining ruhoniylari qilib tanladi (Chiqish 28:1, 29:1-9 ga qarang). To'liqroq ma'lumotga ega bo'lish uchun lug'atdagi LEVI, LEVILAR so'ziga qarang.

ESTER

KITOBI

Kirish

Ester kitobi bizni yahudiylar tarixining ayrim voqealari bilan tanishtiradi. Kitobdagi voqealar yahudiylar Fors shohligida asirlikda yashagan paytda, Fors shohi Axashverash hukmronligi davrida yuz beradi. Mazkur kitobdagi voqealar tafsirchi Ezra kitobi qamragan davrga tegishlidir. Bu kitobda Xudo O‘z xalqining Xaloskori ekanini yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Ester to‘g‘risidagi voqea Fors shohining Shushan qal’asidagi qishki saroyida bo‘lib o‘tadi. Shoh Axashverash* malikani haydab yuboradi. Keyin Ester ismli yosh yahudiy qizni tanlab, uni malika martabasiga ko‘taradi. Ester yetim bo‘lib, amakisi Mardoxayga o‘z farzandiday edi. Mardoxay shoh saroyida xizmat qilardi. U Esterni: “Yahudiy ekaningni hech kimga aytma”, deb ogohlantiradi. Ester Mardoxayning aytganini qiladi.

Shohning Xomon ismli eng katta lavozimdagi amaldori bo‘ladi. U yahudiylardan nafratlanadi. Xomon shohni aldab, hamma yahudiylarni o‘ldirish to‘g‘risida ijozat oladi. Kitobning davomida Ester o‘z hayotini xavf ostiga qo‘ygani va xalqini saqlab qolgani haqida hikoya qilinadi. Keyinchalik Mardoxay va Ester hamma yahudiylarga maktub yozib, Purim bayramini nishonlash to‘g‘risida ko‘rsatmalar beradilar. Yahudiylar Purim bayramini* har yili nishonlaydigan bo‘ldilar, bayram davomida ularning hayoti qanday qilib saqlab qolinganini xotirlaydilar.

Ester kitobida Xudo tilga olinmaydi, shunga qaramay, kitobdagi har bir voqea ortida Xudoning buyukligini va O‘z xalqiga bo‘lgan cheksiz inoyatini ko‘rishimiz mumkin.

1–BOB

Axashverashning ziyofati

1 Bu voqea Axashverash* davrida bo‘lib o‘tgan edi. Axashverash Hindistondan
Habashistongacha* bir yuz yigirma yetti viloyat ustidan hukmronlik qilardi.
2 Shoh Axashverash Shushandagi* qal’ada shohlik taxtiga o‘tirgandan keyin,
3 hukmronligining uchinchi yilida* barcha vazirlari va saroy a’yonlari, Fors va Midiya
shohliklarining bosh lashkarboshilari va zodagonlari, qo‘li ostidagi viloyatlarning
hokimlari uchun ziyofat berdi. 4 Axashverash ancha vaqt — bir yuz sakson kun
davomida o‘z shohligining beqiyos boyligini, dabdabali va hashamatli ulug‘vorligini
ko‘rsatdi. 5 Bu ziyofatdan keyin Axashverash Shushan qal’asining kattayu kichigiga shoh
saroyining bog‘ hovlisida yetti kun ziyofat berdi. 6 Bog‘ning marmar ustunlari tepasidagi
kumush halqalarga oliy navli va safsar rangli zig‘ir iplardan to‘qilgan, arqonlarga
bog‘langan oq va ko‘k rangli zig‘ir pardalar osilgandi. Arg‘uvon va oq marmar, sadaf va
qoramtir toshlar qoplangan joyga oltin va kumush o‘rindiqlar o‘rnatilgan edi.
7 Ichimliklar turli–tuman oltin qadahlarda tortildi. Shohona sharob ham, shohning
boyligi kabi, juda serob bo‘ldi. 8 Chunki shoh o‘z xonadoni boshqaruvchilariga: “Har
kimga istaganicha berilsin”, deb farmon etdi. Shuning uchun ichimliklar, shohning
farmoniga ko‘ra, mehmonlarning xohishiga qarab berildi. 9 Malika Vashti ham shoh

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

Axashverash saroyida ayollar uchun ziyofat berayotgan edi.

Malika Vashti tojdan mahrum qilinadi

10 Yettinchi kuni shoh sharob ichib vaqti chog‘ bo‘lib, o‘zining Maxumon, Bizta,
Xarbona, Bixta, Avag‘ta, Zatar, Karkas ismli yettita mulozimiga* shunday farmon berdi:
11 “Malika Vashtiga shohona toj kiydirib, huzurimga olib kelinglar, xalqqa va a’yonlarga
uning go‘zalligini ko‘rsatay.” Haqiqatan ham malika g‘oyat go‘zal edi. 12 Lekin malika
Vashti kelmadi, shohning mulozimlar orqali bergan farmonini bajarishdan u bosh tortdi.
Shoh bundan qattiq g‘azablandi, malikadan g‘oyatda jahli chiqdi. 13 Shoh o‘z ishlarini
qonun–qoidani biladiganlar oldida qilardi. 14 O‘sha paytda shohning yaqinlari Fors va
Midiya shohligining yettita begi — Karshana, Shator, Admata, Tarshish, Miros, Marsano,
Mamuxon edi. Ularning joyi shohning huzurida bo‘lib, shohlikda eng yuqori mavqeni
egallagan edilar. Shoh qonun–qoidalarni yaxshi biladigan o‘sha donishmandlardan
so‘radi:

15 — Shoh Axashverash malika Vashtiga mulozimlar orqali farmon bergan edi, u itoat
etmadi. Bu qilmishi uchun qonunga binoan uni nima qilish kerak?

16 Shunda Mamuxon shoh va a’yonlar huzurida shunday javob berdi:

— Malika Vashti yolg‘iz shohimiz oldidagina emas, balki shoh Axashverash
hukmronligi ostidagi hamma viloyatlarning beklari va xalqi oldida aybdordir. 17 Chunki
malikaning qilig‘ini hamma ayollar eshitishgach, ular: “Shoh Axashverash, malika
Vashtini huzurimga olib kelinglar, deb farmon bergan ekan, malika bormabdi”, deb
gapirib yuradilar va erlarini mensimay qo‘yadilar. 18 Malikaning qilig‘i to‘g‘risida
eshitgan Fors va Midiya shohligi begoyimlari shohimizning hamma a’yonlariga ayni
o‘sha gapni aytadilar. O‘rtada kiborlik, dilsiyohlik paydo bo‘ladi. 19 Agar shohimiz ma’qul
ko‘rsalar, o‘zlari butun shohlik hududi bo‘yicha qaror chiqarsinlar. Fors hamda Midiya
shohligi qonunlariga: “Vashti shoh Axashverash huzuriga kirmasin, uning shohlikdagi
martabasi boshqa yaxshirog‘iga berilsin” degan qo‘shimcha kiritilsin va bu farmon
o‘zgartirilmasin. 20 Shohlik qanchalik katta bo‘lmasin, shohimizning bu farmoni shohlik
bo‘ylab tarqalganda, barcha ayollar — boyu kambag‘ali erlarini hurmat qiladigan
bo‘ladilar.

21 Bu gap shohga va a’yonlarga ma’qul bo‘ldi. Shoh Mamuxon aytganiday qildi. 22 U
qo‘li ostidagi hamma viloyatlarga maktub jo‘natdi. Maktub har bir viloyatning o‘z
yozuvida va har bir xalqning o‘z tilida bitilgan bo‘lib, unda: “Har bir erkak o‘z oilasida
xo‘jayin bo‘lsin va uning gapi gap bo‘lsin”, deb yozilgan edi.

2–BOB

Ester malika bo‘ladi

1 Axashverash* g‘azabidan tushgandan keyin, Vashti va uning qilmishi, Vashtining
ustidan chiqarilgan hukm esiga tushib qoldi. 2 Shohning a’yonlari aytdilar: “Shohimiz
uchun yosh, chiroyli qizlar qidirilsin. 3 Buning uchun shohimiz qo‘li ostidagi viloyatlarda
nazoratchilar tayin qilinsin, ular chiroyli barno qizlarni shohimizning xizmatkori, haram
og‘asi Xegay nazorati ostida Shushan qal’asidagi haramga to‘plasinlar, qizlarga pardoz
bersinlar. 4 Shohimizga yoqqan qiz Vashtining o‘rniga malika bo‘lsin.” Bu gap shohga
ma’qul keldi va u aytilganlarni qildi.

5 Shushan qal’asida bir yahudiy yashardi. Uning ismi Yovir o‘g‘li Mardoxay bo‘lib,

Benyamin qabilasidan edi. Yovir Shimax va Kish* nasliga borib taqalardi. 6 Bobil shohi
Navuxadnazar Yahudo shohi Yohayixinni* asir qilib olib kelganda*, Mardoxay ham
Quddusdan keltirilgan edi. 7 Ota–onasidan yetim qolgan Hadassani Mardoxay asrab olib
tarbiya qildi. Hadassa Mardoxayning jiyani edi. Uning boshqa ismi Ester bo‘lib,
kelishgan, go‘zal qiz edi.
8 Shohning amru farmoni e’lon qilingach, Shushan qal’asiga ko‘p qizlarni to‘plab,
Xegay nazoratiga topshirishdi. Ester ham shoh saroyiga keltirilib, haram og‘asi Xegay
nazoratiga topshirildi.
9 Xegayga Ester yoqdi, Xegay unga iltifot ko‘rsatdi. Xegay darrov: “Bu qizga pardoz
berib, parvarishlanglar, unga ulushini berib turinglar, saroydan yettita kanizak tanlab
olinib, unga cho‘ri qilib berilsin”, deb buyurdi. U shoh haramining eng yaxshi bo‘lmasiga
qizni va uning kanizlarini joylashtirdi. 10 Lekin Ester o‘z xalqi, urug‘–aymog‘i to‘g‘risida
hech narsa aytmadi. Chunki Mardoxay unga bu to‘g‘rida og‘iz ochmasligini buyurgan edi.
11 Mardoxay har kuni Esterning sog‘ligidan xabar olgani, unga qanday muomala
qilishyapti ekan, deb bilgani haram hovlisi atrofida yurardi. 12 Har bir yosh qizga,
Axashverash huzuriga kirish uchun navbati kelganda, o‘n ikki oy davomida pardoz
berilardi. Ayollar uchun chiqarilgan qoida shunaqa edi. Olti oy mirra moyi* bilan, olti oy
xushbo‘y narsalar va upa–eliklar bilan pardoz qilardilar. 13 Shundan keyin qiz shoh
huzuriga kirardi: qiz saroyga kirayotganda, haramdan nima talab qilsa, hammasi
berilardi.
14 Kechqurun shoh huzuriga kirgan qiz, ertasiga ertalab shohning mulozimi*,
kanizaklar* soqchisi Shashagaz nazorati ostidagi boshqa haramga* qaytardi. Faqat
shohga xush yoqqan, shoh nomini aytib chaqirgan qiz qaytadan uning huzuriga kirardi.
15 Mardoxayning asrandisi, uning amakisi Abuhayilning qizi Ester shoh huzuriga
kiradigan payt ham keldi. Ester shohning mulozimi, haram og‘asi Xegay nima taklif
qilgan bo‘lsa, shuni oldi va boshqa hech narsa so‘ramadi. Esterni ko‘rganlarning
ko‘zlarida quvonch porladi.
16 Shunday qilib, Axashverash hukmronligining yettinchi yili* o‘ninchi oyi — Tabat
oyida*, Ester shoh Axashverash saroyiga keltirildi. 17 Shoh Esterni hamma qizlardan
ortiq sevib qoldi. Ester shohning muruvvatiga va iltifotiga barcha qizlardan ko‘proq
sazovor bo‘ldi: Axashverash malikalik tojini Esterning boshiga kiygizib, uni Vashtining
o‘rniga malika qildi. 18 So‘ngra shoh hamma a’yonlari va xizmatkorlari uchun Ester
sharafiga ziyofat berdi, hamma viloyatlarda bayram e’lon qildi. Oliyhimmatlik bilan
hadyalar ulashdi.

Mardoxay shohning hayotini saqlab qoladi

19 Barno qizlar keyingi safar haramga to‘planishganda, Mardoxay saroyda o‘z
vazifasini bajarayotgan edi*. 20 Ester Mardoxayning buyrug‘iga itoat etib, urug‘–aymog‘i
va xalqi to‘g‘risida hali gapirmagan edi. Ester Mardoxayning tarbiyasida bo‘lgan paytda
unga qanday itoat qilgan bo‘lsa, hozir ham shunday itoat etardi.
21 O‘sha kunlarda — Mardoxay saroyda o‘z vazifasini bajarayotganda, shohning
Bixtan va Tarash degan ikkita darvozaboni quturib, shoh Axashverashning joniga
suiqasd qilishni rejalashtirdilar. 22 Mardoxay bu fitnani bilib qolib, malika Esterni
ogohlantirdi. Ester esa fitna to‘g‘risidagi xabarni Mardoxay nomidan shohga yetkazdi.
23 Bu voqea tekshirilgach, to‘g‘ri deb topildi va ikkala xizmatkor dorga osildi*. Bu

voqea shohning “Kundalik xotiralar kitobi”ga yozib qo‘yildi.

3–BOB

Xomon yahudiylarga qarshi chiqadi

1 Bu hodisalardan keyin shoh Axashverash* O‘gax* naslidan bo‘lgan Xamadoto o‘g‘li
Xomonni ko‘klarga ko‘tarib, yuksak martabaga tayinladi. Boshqa hamma a’yonlar
ustidan Xomonni nozir etib tayinladi. 2 Shohning saroydagi* boshqa a’yonlari Xomonga
tiz cho‘kib ta’zim qilardilar. Chunki shohning amri shunday edi. Mardoxay esa na
egilardi, na ta’zim qilardi. 3 Shohning saroydagi a’yonlari Mardoxayga: “Nimaga sen
shohning amriga itoat etmayapsan–a?!” deb aytardilar.
4 Ular Mardoxayga bu gapni har kuni aytsalar ham, Mardoxay ularning gapiga quloq
solmasdi. A’yonlar, Mardoxayning bu qilig‘iga Xomon toqat qila olarmikan, deb uni bu
ahvoldan xabardor qildilar. Chunki Mardoxay ularga: “Men yahudiyman”, deb aytgan
edi.
5 Xomon Mardoxayning tiz cho‘kib ta’zim qilmayotganini ko‘rganda, g‘azabdan
tutaqardi. 6 Xomon birgina Mardoxayni o‘ldirishni arzimas ish deb o‘yladi.
Mardoxayning qaysi xalqdan ekanini bilgani uchun Xomon Axashverashning butun
shohligi hududidagi Mardoxayning xalqini — jamiki yahudiy xalqini qirib tashlashga
qasd qilib qo‘ydi.
7 Axashverash hukmronligining o‘n ikkinchi yili* birinchi oyi — Nison oyida* bu fitna
amalga oshiriladigan kun va oy uchun Xomon oldida pur* — qur’a tashlandi. Qur’a o‘n
ikkinchi oyning — Adar oyining* o‘n uchinchi kuniga* tushdi.
8 Shundan keyin Xomon shoh Axashverashga aytdi:
— Shohligingiz viloyatlaridagi boshqa xalqlarning orasiga sochilib–tarqalib ketgan
bir xalq bor. Ularning qonunlari hamma xalqlar qonunidan farq qiladi. Shohimiz
qonunlariga ular bo‘ysunmaydilar. Ularga sabr–toqat qilish shohimizning manfaatlariga
ziddir. 9 Agar shohimiz ma’qul ko‘rsalar, bu xalqni qirib tashlash uchun farmon
bersinlar. Men o‘n ming talant* kumushimni a’yonlar qo‘liga olib borib beraman. Ular bu
kumushni shohimiz xazinasiga topshiradilar.
10 Shundan keyin shoh barmog‘idagi muhr uzugini yechib, farmonini tasdiqlash
uchun yahudiylar dushmani O‘gax naslidan Xamadoto o‘g‘li Xomonga berdi.
11 — Bu pullar o‘zingda qolsin, xalqni ham senga berdim, — dedi shoh Xomonga. —
Anavi xalqqa nimani ma’qul ko‘rsang, shuni qil.
12 Birinchi oyning o‘n uchinchi kuni shohning mirzalari chaqirildi. Xomonning
hamma buyruqlari har bir viloyat xalqining o‘z yozuvida va o‘z tilida shohning
noiblariga, har bir viloyat hokimiga va har bir xalqning begiga yozildi. Maktublar shoh
Axashverash nomidan yozilib, shohning muhr uzugi bilan tasdiqlandi*.
13 Maktublar choparlar orqali shohning qo‘li ostidagi hamma viloyatlarga jo‘natildi.
“Yahudiylarning hammasi — yoshu qarisi, bolalaru ayollari bir kunda — o‘n ikkinchi
oyning, ya’ni Adar oyining o‘n uchinchi kuni yo‘q qilinsin, o‘ldirilsin, qirib tashlansin,
mol–mulki talon–taroj qilinsin, 14 hamma o‘sha kunga tayyor bo‘lsin”, deb farmon e’lon
qilindi. Shuning uchun har bir viloyatga ular uchun qonun sifatida farmondan ko‘chirma
berildi.
15 Choparlar shohning aytganiga muvofiq tezlik bilan yo‘lga chiqdilar. Farmon

Shushan qal’asida ham e’lon qilingach, shahar besaranjom bo‘lib qoldi. Shoh bilan Xomon esa o‘tirishib kayfu safo qilishardi.

4–BOB

Mardoxay Esterdan yordam so‘raydi

1 Mardoxay yuz bergan voqeadan xabardor bo‘lgach, kiyimlarini yirtdi, qanorga
o‘ranib, ustiga kul sochdi*. Keyin qattiq alamli faryod ko‘tarib, shahar bo‘ylab yurdi.
2 O‘sha holatda saroy darvozasiga bordi, lekin qanor kiyib saroy darvozasidan ichkariga
kirish mumkin emasdi. 3 Shuningdek, har bir viloyatda — shohning amru farmoni yetib
borgan joylarda yahudiylar chuqur qayg‘uga botdilar, ro‘za tutib, yig‘lab nola qildilar.
Ko‘pchilik qanorga o‘ranib va kulga belanib yotdi. 4 Esterning kanizlari va xizmatkorlari
kelib, bu haqda xabar berishganda, malika qattiq tashvishga tushdi. “Mardoxay ustidagi
qanorni yechib, mana bu kiyimlarni kiyib olsin”, deb malika kiyim berib yuborgan edi,
Mardoxay olmadi. 5 Esterning xizmatiga shoh tayinlagan Xatax ismli mulozim* bor edi.
Ester Xataxni chaqirib, unga: “Bu nimasi, Mardoxay nimaga bunday qilyapti ekan, bilib
kel–chi”, deb buyurdi. 6 Xatax shoh saroyi darvozasi oldidagi shahar maydoniga —
Mardoxayning yoniga ketdi.

7 Mardoxay o‘zining boshiga tushgan hamma kulfatni, Xomon yahudiylarga qirg‘in
keltirish uchun shoh xazinasiga qancha miqdorda kumush berishga va’da qilganini
Xataxga aytib berdi. 8 Keyin Mardoxay Xataxga yahudiylarni qirish to‘g‘risida Shushanda
e’lon qilingan farmondan bir nusxasini berib: “Esterga buni ko‘rsat, u hamma narsani
tushunib olsin”, dedi. “Ester shoh huzuriga kirib, o‘z xalqiga rahm etishini iltijo qilib
so‘rasin”, deb tayinladi.

9 Xatax qaytib kelib, Mardoxayning gaplarini Esterga aytib berdi. 10 Ester:
“Mardoxayga ushbu gaplarni yetkaz”, deb Xataxni yana jo‘natdi: 11 “Shoh saroyida
hamma xizmat qilayotganlar va shohning qo‘li ostidagi viloyatlar xalqi shuni biladilarki,
kimki ichki hovliga — shoh huzuriga chaqirilmasdan kirsa, erkakmi, ayolmi, baribir,
hukm bitta — uni o‘lim kutadi. Shoh saltanatning oltin hassasini kimga tomon
uzatsagina, o‘sha tirik qoladi. Lekin o‘ttiz kundan buyon shoh meni chaqirgani yo‘q.”

12 Esterning bu gaplarini Mardoxayga aytishgach, 13 u Esterga shu javobni
yetkazishni so‘radi: “Saroyda yashaganim uchun yahudiylardan yolg‘iz o‘zim omon
qolaman, deb o‘ylamagin. 14 Agar shu damlarda sen sukut saqlasang, yahudiylarga
boshqa joydan najot keladi, ular ozod bo‘ladilar. Sen va otang xonadoni esa halok
bo‘lasizlar. Kim bilsin, balki shunaqa kunlar uchun sen malikalik martabasiga
erishgandirsan.”

15 Ester ham Mardoxayga quyidagicha javob jo‘natdi: 16 “Boring, Shushandagi hamma
yahudiylarni to‘plab, men uchun ro‘za tutinglar. Uch kechayu uch kunduz hech narsa
yemanglar ham, ichmanglar ham. Men ham kanizaklarim bilan ro‘za tutaman, so‘ngra
qonunga xilof bo‘lsa ham, shoh huzuriga boraman. Mayli, o‘lsam, o‘lay.”

17 Mardoxay ketdi va Ester nima buyurgan bo‘lsa, hammasini qildi.

5–BOB

Ester tilagini shohga ayon qiladi

1 Uchinchi kuni Ester shohona liboslarini kiyib, saroyning ichki hovlisida — shoh
yashaydigan xosxona roʻparasida paydo boʻldi. Shoh xosxonaning toʻridagi taxtda oʻtirib,
2 hovlida kutib turgan malika Esterni koʻrdi–yu, unga marhamat qildi va qoʻlidagi
saltanatning oltin hassasini Esterga tomon choʻzdi. Ester yaqinroq kelib hassaning
uchiga tegindi.

3 Shoh undan:

— Senga nima kerak, malika Ester? — deb soʻradi. — Tilaging nima? Hatto yarim
shohlikni soʻrasang ham beriladi.

4 — Agar shohimiz maʼqul koʻrsalar, bugun Xomon bilan birga menikiga ziyofatga
kelsalar, — dedi malika. — Men shohimiz uchun ziyofat tayyorlagandim.

5 Shoh:

— Zudlik bilan borib Xomonni topib kelinglar! — deb buyurdi. — Esterning istagini
bajo qilaylik.

Shunday qilib, shoh Xomon bilan birga Ester tayyorlagan ziyofatga bordi. 6 Shoh
maydan ichar ekan:

— Ayt, nima istaysan? Nima istasang beriladi, — dedi Esterga. — Qanday tilaging
bor? Yarim shohlikni soʻrasang ham, xohishing qondiriladi.

Ester shunday javob berdi:

7 — Mening istagim va iltimosim shuki, 8 agar shohimiz mendan mamnun boʻlsalar,
shohimiz mening tilagimni va istagimni qondirishni maʼqul koʻrsalar, ertaga men
tayyorlaydigan ziyofatga yana Xomon bilan birga kelsinlar. Oʻshanda shohimizning
savoliga javob beraman.

Xomon gʻazablanadi

9 Xomon oʻsha kuni ziyofatdan xursand, kayfiyati chogʻ boʻlib chiqdi. U shoh saroyi
darvozasi oldida Mardoxayni koʻrdi. Mardoxay Xomonning hurmati uchun oʻrnidan
turmadi ham, taʼzim ham qilmadi. Xomon esa gʻazabdan tutaqib ketdi. 10 Biroq u oʻzini
bosdi. Uyiga kelib, doʻstlarini va xotini Zareshni chaqirtirdi. 11 Xomon ularga oʻzining
cheksiz boyligi va koʻpdan–koʻp oʻgʻillari toʻgʻrisida gapirdi, shuningdek, shoh uni
aʼyonlar va xizmatkorlar ustidan yuksak martabaga koʻtargani haqida maqtandi.

12 Keyin u yana aytdi:

— Malika Ester ziyofat tayyorlagan ekan, shoh bilan mendan boshqa hech kimni
taklif qilmabdi. Ertaga ham men shoh bilan birga unikiga ziyofatga chaqirilganman.
13 Lekin saroy darvozasida turgan yahudiy Mardoxayni koʻrganimda, bularning men
uchun hech bir qimmati qolmaydi.

14 Shunda xotini Zaresh va hamma doʻstlari Xomonga maslahat berishdi:

— Dor tayyorlashsin, balandligi ellik tirsak* boʻlsin. Ertalab shohdan iltimos qil,
Mardoxayni oʻsha dorga osishsin*. Keyin xursand boʻlib, shoh bilan birga ziyofatga
boraverasan.

Bu gap Xomonga maʼqul tushdi. U dorni* tayyorlatib qoʻydi.

6–BOB

Mardoxayga hurmat koʻrsatiladi

1 Shu kecha shohning uyqusi qochdi. Shoh:

— “Kundalik xotiralar kitobi”ni olib kelinglar! — deb buyurdi. Kitobni unga oʻqib berishdi. 2 Xotira kitobidagi shoh Axashverashning* darvozabonlari Bixtan va Tarash shohning joniga qasd qilishni rejalashtirganlari, buni Mardoxay bilib qolib shohga yetkazgani toʻgʻrisida yozilgan voqeaga yetib kelishdi.

3 Shunda shoh:

— Bu xizmati uchun Mardoxay nima bilan taqdirlangan? Unga hurmat koʻrsatilganmi? — deb soʻradi.

— U hech narsa bilan taqdirlanmagan, — deb javob berishdi shohning a’yonlari.

4 — Hovlida kim bor? — soʻradi shoh. Shu paytda Xomon shoh saroyining tashqi hovlisiga kelgan va Mardoxay uchun tayyorlatib qoʻygan dorga uni ostirish toʻgʻrisida* shoh bilan maslahatlashmoqchi boʻlib turgan edi. 5 Shohning a’yonlari:

— Hovlida Xomon turibdi, — deb javob berishdi.

— Bu yoqqa kirsin! — deb buyurdi shoh.

6 Xomon kirgach, shoh undan soʻradi:

— Shoh taqdirlamoqchi boʻlgan odamga qanday hurmat koʻrsatsa boʻladi?

Xomon oʻz koʻnglida: “Shoh mendan boshqa kimga ham izzat–hurmat koʻrsatishni istardi”, deb oʻyladi 7 va shohga aytdi:

— Shohimiz hurmat koʻrsatib, taqdirlamoqchi boʻlgan odam uchun 8 oʻzlari kiygan shohona liboslarni, shohimiz mingan, usti shohona zeb–ziynatlar* bilan bezatilgan otni olib kelishsin. 9 Shohning eng yaqin beklaridan biri qoʻliga liboslarni va otni berishsin. Shoh hurmat koʻrsatib, taqdirlamoqchi boʻlgan oʻsha odam kiyintirilgandan keyin, otga mindirilsin–da, shahar maydoniga olib chiqilsin. Uning oldida yurib: “Shoh taqdirlamoqchi boʻlgan odam mana shunday hurmatga sazovor boʻladi!” deb jar solinsin.

10 Shoh Xomonga buyurdi:

— Hoziroq, oʻzing aytganingday, liboslarni va otni olgin–da, saroy darvozasida turgan yahudiy Mardoxayga shunday qil. Aytganlaringdan birortasi ham qolib ketmasin.

11 Xomon liboslarni va otni olib, Mardoxayni kiyintirdi. Soʻng uni otga mindirib, shahar maydoniga olib chiqdi va uning oldida yurib: “Shoh taqdirlamoqchi boʻlgan odam mana shunday hurmatga sazovor boʻladi!” deb jar soldi.

12 Mardoxay saroy darvozasiga qaytib keldi. Xomon esa sharmanda boʻlganidan yuzini berkitib jadal uyiga yoʻl oldi.

13 Xomon xotini Zareshga va barcha doʻstlariga yuz bergan voqeani aytib berdi. Doʻstlari va xotini Zaresh shunday deyishdi:

— Mardoxay tufayli sen pastga ketding. Agar u yahudiylardan boʻlsa, unga bas kela olmaysan. Aksincha, barbod boʻlasan.

14 Ular gaplashib turganlarida, shohning mulozimlari* kelib, Xomonni Ester tayyorlagan ziyofatga apil–tapil olib ketdilar.

7–BOB

Xomon dorga osiladi

1 Shoh va Xomon malika Ester bilan yeb–ichish uchun unikiga kelishdi. 2 Ular ikkinchi
kuni ham sharobxo‘rlik qilishayotganda, shoh Esterga yana aytdi:
— Qanday istaging bor, malika Ester? Istaging qondiriladi. Qanday iltimosing bor,
malikam? Yarim shohlikni so‘rasang ham, beriladi.
3 Shundan keyin malika Ester gapirdi:
— Shoh hazratlari! Agar o‘zlari mendan mamnun bo‘lsalar, agar shohim ma’qul
ko‘rsalar, istagim shuki, jonimni saqlab qolsinlar, tilagim shuki, mening xalqim joniga
rahm qilsinlar! 4 Men va mening xalqim yer yuzidan yo‘q qilinish uchun, o‘ldirilish va
qirilish uchun sotilganmiz*. Agar biz qul va cho‘ri qilib sotilganimizda edi, ovozimni
chiqarmasdim. O‘sha dushmanning qilmishi uchun shohimizni bezovta qilish arzimas
ish bo‘lardi.
5 Shoh Axashverash* malika Esterdan:
— Kim u? Qani o‘sha odam? Kim shunday qilishga jur’at etdi? — deya so‘radi.
6 — Zararkunanda, g‘anim, yovuz Xomon! — dedi Ester.
Shu zahoti Xomon shoh bilan malika qarshisida vahimaga tushdi. 7 Shoh g‘azab bilan
dasturxondan turdi–yu, saroy bog‘iga qarab ketdi. Xomon esa malika Esterdan “Jonimni
qutqargin”, deb yolvorish uchun qoldi, chunki shohdan o‘ziga nisbatan yovuz qismat
tayin etilganini u bilib turardi.
8 Shoh bog‘dan saroyning ziyofat bo‘layotgan xonasiga qaytganda, Xomon Ester
yonboshlab o‘tiradigan o‘rindiqqa mahkam yopishib yotgan edi. Shoh bu ahvolni ko‘rdi–
yu:
— Oh–ho, men uyda ekanimda malikaning nomusiga tegmoqchi bo‘ldingmi? — deb
baqirdi. Shoh gapini tugatar–tugatmas, Xomonning yuzini yopdilar*.
9 Shohning mulozimlaridan* biri Xarbona aytib qoldi:
— Ha, aytganday, Xomon uyining oldiga ellik tirsakli* dor tayyorlab qo‘ygan. Bu
dorga Mardoxayni osmoqchi. Mardoxay esa shohimizni ogohlantirib uning hayotini
saqlab qolgan.
— O‘sha dorga Xomonning o‘zini osinglar!* — deb farmon berdi shoh.
10 Mardoxay uchun tayyorlab qo‘yilgan dorga Xomonning o‘zini osdilar*. Shundan
so‘nggina shohning g‘azabi bosildi.

8–BOB

Shoh yahudiylarni himoya qiladi

1 O‘sha kuni shoh Axashverash* yahudiylar dushmani Xomonning mol–mulkini
malika Esterga in’om qildi. Mardoxay shoh huzuriga kirib chiqadigan bo‘ldi. Chunki
malika Mardoxayning o‘ziga qarindosh ekanini aytgan edi.
2 Shoh Xomondan qaytarib olgan muhr uzugini barmog‘idan chiqarib Mardoxayga
berdi. Ester esa Mardoxayni Xomonning mol–mulki ustidan boshqaruvchi qilib
tayinladi.
3 Ester shoh bilan yana gaplashdi. Shohning oyog‘iga yiqilib: “O‘gax* naslidan bo‘lgan
Xomonning yahudiylarga qarshi o‘ylagan xusumatini va rejasini daf qiling”, deb yig‘lab

yolvordi. 4 Shoh saltanatning oltin hassasini Ester tomon uzatgan edi, Ester o‘rnidan
turib, shohning qarshisiga keldi 5 va aytdi:
— Agar shohimiz ma’qul ko‘rib, mendan mamnun bo‘lsalar, bu ishni o‘rinli deb
bilsalar, o‘zlariga yoqqan bo‘lsam, O‘gax naslidan Xamadoto o‘g‘li Xomonning shohlik
hududidagi hamma yahudiylarni qirib tashlash to‘g‘risida qasddan yozgan maktubini
bekor qilish uchun boshqa maktub yozilsin. 6 Axir, xalqimning boshiga tushadigan
kulfatni tomosha qilib chidab tura olamanmi?! Qabiladoshlarim o‘ldirilayotganda, guvoh
bo‘lib tura olamanmi?!
7 Shunda shoh Axashverash malika Esterga va yahudiy Mardoxayga aytdi:
— Xomonning mol–mulkini Esterga berdim. Xomon esa yahudiylarni qirib
tashlamoqchi bo‘lgani uchun uni dorga ostirdim*. 8 Endi shoh nomidan yahudiylar
to‘g‘risidagi maktubni o‘zlaringizga ma’qul keladigan tarzda yozib, shohning uzugi bilan
muhrlanglar. Shoh nomidan yozilib, shohning uzugi bilan muhrlangan maktubni hech
kim o‘zgartirishi mumkin emas.
9 Shundan so‘ng uchinchi oyda — Shavon oyining* yigirma uchinchi kuni shohning
mirzalari chaqirildi. Hindistondan Habashistongacha* bo‘lgan bir yuz yigirma yetti
viloyatdagi yahudiylarga, noiblarga, hokimlarga, viloyatlarning beklariga xuddi
Mardoxay buyurganiday maktub yozildi. Maktub har bir viloyat xalqining yozuvi va
tilida, yahudiylarga ham o‘zlarining yozuvida va tilida yozildi. 10 Mardoxay shoh
Axashverash nomidan maktubni yozdirgach, shohning uzugi bilan muhrladi va shohning
yilqisidagi uchqur otlarga choparlarni o‘tqazib jo‘natdi.
11 Shoh maktubda yahudiylarga hamma shaharlarda to‘planib, o‘zlarini himoya
qilishlariga huquq berdi. Bundan tashqari, yahudiylarga hujum qiladigan har qanday
dushman xalqning yoki yurtning qurolli kuchlarini, bolalarini va ayollarini yo‘q qilishga,
o‘ldirishga, mol–mulkini talon–taroj qilishga, qirib tashlashga ijozat berdi. 12 Buning
uchun shoh Axashverashning qo‘li ostidagi hamma yurtlarda bir kun — o‘n ikkinchi
oyning, ya’ni Adar oyining* o‘n uchinchi kuni* belgilandi. 13 Ushbu farmon matni har bir
viloyatga, barcha xalqlarga qonun o‘rnida e’lon qilindi. Shunday qilib, yahudiylar o‘sha
kuni o‘z dushmanlaridan qasos olishga tayyor turishlari kerak edi.
14 Choparlar shohning uchqur otlariga mindilar–u, uning farmoniga ko‘ra, to‘rt
tomonga yelib ketdilar.
Shushandagi qal’ada ham farmon e’lon qilindi. 15 Mardoxay ko‘k va oq rangli
shohona liboslarga burkanib, katta oltin tojni kiyib, safsar rangli zig‘ir ridoga o‘ranib,
shoh huzuridan chiqdi. Shushanda xursandchilik, shodu xurramlik hukm surardi.
16 Bundan yahudiylarning qalbi umidga to‘ldi, shodu xurram, vaqti chog‘ bo‘ldi, ular
uchun sharafli kunlar boshlangan edi. 17 Hamma viloyatlarda, har bir shaharda,
shohning amru farmoni yetib borgan har qanday joyda yahudiylar shodu xurram bo‘lib,
o‘ynab–kuldilar, ziyofatlar uyushtirdilar, bayram qildilar. Shohlikdagi ko‘p xalqlar
yahudiy bo‘ldi, chunki hammani yahudiylardan qo‘rquv hissi qamrab olgan edi.

9–BOB

Yahudiylarning zafari

1 Shohning amru farmoni ijro qilinadigan o‘n ikkinchi oy — Adar oyining* o‘n
uchinchi kuni keldi. Bu kunni yahudiylarning g‘animlari, ularning ustidan hukmronlikni

egallaymiz, deb umid bilan kutgan edilar. Ammo aksincha bo‘lib chiqdi: yahudiylar o‘z g‘animlari ustidan hukmronlikni o‘rnatdilar. 2 Yahudiylar yovuz kimsalarga qarshi kurashish uchun shoh Axashverashga* qarashli hamma viloyatlardagi o‘zlari yashaydigan shaharlarda* bir joyga yig‘ildilar. Hech kim yahudiylarga dosh bera olmadi, chunki yahudiylardan qo‘rquv tuyg‘usi hamma xalqlarni qamrab olgan edi.

3 Viloyatlardagi hamma beklar, noiblar, hokimlar va shohning a’yonlari Mardoxaydan qo‘rqqanlari uchun yahudiylarni qo‘llab–quvvatladilar. 4 Mardoxay saroyning yuksak martabali odami bo‘lib, u tobora kuchayib borar, uning shuhrati butun viloyatlarga yoyilardi.

5 Yahudiylar jamiki dushmanlarini qilichdan o‘tkazib, o‘ldirib, qirib tashladilar. G‘animlariga nisbatan istaganini qildilar. 6 Jumladan, yahudiylar Shushan qal’asida besh yuz kishini qirib tashladilar. 7-10 Yana yahudiylar o‘zlarining dushmani Xamadoto o‘g‘li Xomonning o‘nala o‘g‘lini — Parshandata, Dalfon, Aspata, Po‘rata, Odaliyo, Oridato, Parmashto, Orisay, Oriday va Vayzotoni o‘ldirdilar. Ammo mol–mulkiga qo‘l tekkizmadilar.

11 O‘sha kuni Shushan qal’asida o‘ldirilganlarning hisobini shohga ma’lum qildilar. 12 Shoh esa malika Esterga aytdi:

— Yahudiylar Shushan qal’asida Xomonning o‘nala o‘g‘lini va yana besh yuz kishini qirib, yo‘q qildilar. Kim bilsin, boshqa viloyatlarimda ular nima qildilar ekan? Istaging nima? Ayt, qondirayin. Yana qanday tilaging bor? Bajo qilayin.

13 — Agar shohimizga ma’qul bo‘lsa, Shushandagi yahudiylar ertaga ham bugungi farmoningizni ijro etsinlar, — dedi Ester. — Xomonning o‘nala o‘g‘lining jasadlari ham dorga osilsin*.

14 Shoh ushbu istakni bajarishni buyurdi. Shushanda farmon chiqarildi. Xomonning o‘nala o‘g‘lining jasadi ham dorga osildi. 15 Adar oyining o‘n to‘rtinchi kuni Shushandagi yahudiylar yana to‘planib, qal’ada dushmanlardan uch yuztasini o‘ldirdilar. Lekin mol–mulkiga qo‘l tekkizmadilar.

16 Shohlikning turli viloyatlarida yashaydigan boshqa yahudiylar ham jonini saqlash va dushmanlaridan qutulish uchun bir joyga to‘plandilar. Dushmanlaridan yetmish besh ming kishini o‘ldirdilar, lekin mol–mulkiga qo‘l tekkizmadilar. 17 Bularning hammasi Adar oyining o‘n uchinchi kuni yuz berdi. Yahudiylar o‘n to‘rtinchi kuni tinchib, bu kunni bayram qildilar.

18 Shushandagi yahudiylar ham o‘zlarini qutqarish uchun o‘n uchinchi va o‘n to‘rtinchi kunlari yig‘ildilar. O‘n beshinchi kuni esa tinchib, bu kunni bayram qildilar. 19 Shuning uchun qishloqlardagi aholi Adar oyining o‘n to‘rtinchi kunini bayram sifatida nishonlab ziyofat uyushtiradilar va bir–birlariga taom ulashadilar.

Purim bayrami

20 Mardoxay bu voqealarni yozib qo‘ydi. So‘ngra shoh Axashverash qo‘li ostidagi uzoq–yaqindagi hamma yurtlarda yashayotgan yahudiylarga maktublar yubordi. 21 Maktubda har yili Adar oyining o‘n to‘rtinchi va o‘n beshinchi kunlarini nishonlash lozimligi ta’kidlangan edi. 22 Chunki bu kunlar yahudiylar o‘z dushmanlaridan qutulgan kunlardir. O‘sha oy g‘am — xursandchilikka, motam bayramga aylangan oydir. Mardoxay: “Shu kunlari ziyofat berib, xursandchilik qilinsin, taomlar ulashilsin, kambag‘allarga hadyalar in’om qilinsin”, deb buyurgan edi.

23 Shunday qilib, yahudiylar Mardoxayning buyrug‘ini qabul qildilar va bu
bayramlarini har yil nishonlashni davom ettiraverdilar. 24 Darvoqe, butun
yahudiylarning dushmani O‘gax* naslidan bo‘lgan Xamadoto o‘g‘li Xomon fitna qo‘zg‘ab
yahudiylarni ezib, yo‘q qilish uchun pur* — qur’a tashlagandi. 25 Lekin Ester shohning
huzuriga kirganda*, shoh yana boshqa bir maktub orqali farmon bergandi*. Shunday
qilib, Xomon yahudiylarga qarshi yovuz reja o‘ylab qo‘ygandi, lekin rejasi o‘zining
boshiga yetdi. Xomon va uning o‘g‘illari dorga osildi.
26 Shuning uchun bu bayramga Purim* deb nom berilgandi. Bu nom “pur” so‘zidan
olingan. Shunday qilib, yahudiylar Mardoxayning maktubida* yozilganlardan, ko‘rgan–
kechirganlaridan va boshlariga tushgan ko‘rgiliklardan keyin, 27 o‘zlari, bolalari va
barcha qabiladoshlari o‘sha ikki kunni belgilangan vaqtda, yozilganiday, har yili doimiy
ravishda bayram qilishga qaror qilgandilar. 28 “Bu kunlar avlodlar osha hamma oilada,
viloyatlarda, har bir shaharda unutilmasdan, bayram qilinsin, Purim kunlarini
yahudiylar o‘tkazib yubormasin, bu kunlar avlodlar osha davom etib xotirlansin”, deb
qaror chiqardilar.
29 Abuhayil qizi malika Ester, yahudiy Mardoxay bilan birga, o‘z huquqi bo‘yicha,
Purim to‘g‘risidagi o‘sha maktubni* yozib, tasdiqlagandi. 30 Mardoxay Axashverashning
hukmronligi ostidagi yuz yigirma yettita viloyatda yashaydigan hamma yahudiylarga
tinchlik–omonlik tilangan o‘sha maktublarni yubordi. 31 Maktubda malika Ester bilan
Mardoxay buyurganlariday, Purim kunlarini belgilangan sanada nishonlashga qat’iy
rioya qilishlari aytilgan edi. Yahudiylarning o‘zlari va bolalari ro‘za tutishga va motam
odatlariga amal qilganlari singari, bu bayramga ham rioya qilishlari kerakligi
ta’kidlangan edi. 32 Shunday qilib, Purimga oid qoidalar, Esterning buyrug‘iga ko‘ra,
tasdiqlandi va kitobga yozib qo‘yildi.

10–BOB

Axashverash va Mardoxay sha’niga maqtov

1 Shoh Axashverash* o‘z shohligining bu chetidan tortib, orollargacha bo‘lgan
joylarda o‘lpon yig‘ardi. 2 Uning kuch–qudrati, faoliyati va Mardoxayni har jihatdan
qanday yuksaltirgani Fors hamda Midiya shohlarining “Kundalik xotiralar kitobi”da
yozilgan. 3 Yahudiy Mardoxay, huquqi bo‘yicha, shoh Axashverashdan keyin turardi. U
yahudiy qabiladoshlari orasida ulug‘likka erishdi, birodarlari orasida hurmatga sazovor
bo‘ldi. Chunki u o‘z xalqi manfaati uchun, hamma qabiladoshlarining tinchligi uchun
kurashardi.

IZOHLAR

Shoh Axashverash — Kserks ismi bilan ham tanilgan bo‘lib, miloddan oldingi 486-465 yillarda Fors shohligida hukmronlik qilgan.

Purim bayrami — 9:24-28 oyatlarga va 9:26 ning birinchi izohiga qarang.

1:1 *Axashverash* — Kserks ismi bilan ham tanilgan bo‘lib, miloddan oldingi 486-465 yillarda Fors shohligida hukmronlik qilgan.

1:1 *Habashiston* — ibroniycha matnda *Kush*. Bu joy Misrdan janubda bo‘lib, hozirgi Sudan va Efiopiya mamlakatlarining bir qismini o‘z ichiga olgan edi.

1:2 *Shushan* — Elam viloyatining poytaxti bo‘lib, Bobildan sharqda joylashgan edi. Shushan qal’asi Fors shohlarining qishki qarorgohi edi.

1:3 *hukmronligining uchinchi yili* — taxminan miloddan oldingi 483 yil.

1:10 *mulozim* — qadimda saroy xizmatida bo‘lgan kishi (shu bobning 12, 15–oyatlarida ham bor). Mulozim hukmdorning yoki saroydagi yuqori lavozimdagi amaldorning farmonlarini, topshiriqlarini bajargan va ularning nomidan ish yuritish huquqiga ega bo‘lgan. Bu o‘rindagi ibroniycha so‘z bichilgan erkakka nisbatan ham ishlatilgan. Hukmdorning xonadonidagi ayollar bilan ko‘p muloqot qilish zarurati bo‘lgani uchun bu mulozimlar ko‘pincha bichib qo‘yilar edi.

2:1 *Axashverash* — 1:1 ning birinchi izohiga qarang.

2:5 *Kish* — shoh Shoulning otasi (1 Shohlar 9:1-2 ga qarang).

2:6 *Yohayixin* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Yoxoniyo*.

2:6 *…asir qilib olib kelganda…* — miloddan oldingi 598 yil (4 Shohlar 24:8-16 ga qarang).

2:12 *mirra moyi* — ma’lum bir daraxtlar yelimidan tayyorlangan xushbo‘y moy.

2:14 *mulozim* — qadimda saroy xizmatida bo‘lgan kishi (shu bobning 15–oyatida ham bor). 1:10 izohiga qarang.

2:14 *kanizaklar* — ibroniycha matnda bu so‘zning ma’nosi quyidagicha: kanizaklar qonuniy xotin bo‘lmasalar–da, xo‘jayinlari ular bilan jinsiy aloqada bo‘lishgan. Qadimgi paytlarda bu ayollarning jiddiy qonuniy huquqlari bo‘lib, xo‘jayinlari ularning erlari sifatida bo‘lgan.

2:14 *…boshqa haramga…* — yoki *…haramning boshqa bo‘lmasiga….*

2:16 *…Axashverash hukmronligining yettinchi yili…* — taxminan miloddan oldingi 478 yil (1:1 ning birinchi izohiga qarang).

2:16 *Tabat oyi* — ibroniy kalendarining o‘ninchi oyi. Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan dekabrning o‘rtasidan boshlanadi.

2:19 *…Mardoxay saroyda o‘z vazifasini bajarayotgan edi* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *…Mardoxay shohning darvozasida o‘tirgan edi* (shu bobning 21–oyatida ham bor). Mazkur gapning ibroniycha varianti shundan dalolat beradiki, Mardoxay saroyda ma’muriy vazifada bo‘lgan. Mardoxay shoh xizmatiga Ester saroyga olib kelingandan oldin kirgan bo‘lishi mumkin.

2:23 *...ikkala xizmatkor dorga osildi* — yoki *...ikkala xizmatkorni o‘ldirib, jasadlarini tik o‘rnatilgan xodaga qoqishdi*.

3:1 *shoh Axashverash* — 1:1 ning birinchi izohiga qarang.

3:1 *O‘gax* — Omolek xalqining shohi bo‘lib, Omoleklar azaldan Isroil xalqining dushmani edilar (Chiqish 17:8-16, Qonunlar 25:17-19, 1 Shohlar 15:1-33 ga qarang).

3:2 *saroydagi* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *shohning darvozasidagi* (shu bobning 3–oyatida ham bor).

3:7 *Axashverash hukmronligining o‘n ikkinchi yili...* — taxminan miloddan oldingi 472 yil (1:1 ning birinchi izohiga qarang).

3:7 *Nison oyi* — ibroniy kalendarining birinchi oyi (Nison oyi Abib oyi deb ham ataladi). Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan martning o‘rtasidan boshlanadi.

3:7 *pur* — akkad–bobil tilidagi so‘z bo‘lib, qur’a degan ma’noni bildiradi.

3:7 *Adar oyi* — ibroniy kalendarining o‘n ikkinchi oyi. Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan fevralning o‘rtasidan boshlanadi.

3:7 *...oyining o‘n uchinchi kuni...* — qadimiy yunoncha tarjimadan. Ibroniycha matnda *oyining o‘n uchinchi kuni* degan jumla yo‘q. Ammo ibroniycha matndagi shu bobning 13–oyatida ko‘rsatilgan.

3:9 *o‘n ming talant* — taxminan 340 tonnaga to‘g‘ri keladi.

3:12 *...shohning muhr uzugi bilan tasdiqlandi* — xatni muhrlash uchun surg‘uchdan foydalanilgan. Yumshoq surg‘uch ustiga shohning uzugi bosilib, xat muhrlangan. Muhr xatning rasmiy ekanini ko‘rsatgan.

4:1 *...kiyimlarini yirtdi, qanorga o‘ranib, ustiga kul sochdi* — qanor dag‘al qoramtir mato bo‘lib, echki yoki tuya junidan to‘qilgan. Kiyimlarni yirtish, qanorga o‘ranib olish va ustiga kul sochish umidsizlikni va qayg‘uli holatni ifodalaydi. Ko‘pincha bu harakat Xudodan kechirim so‘rab ibodat qilish va Undan madad tilash bilan birgalikda amalga oshirilgan.

4:5 *mulozim* — qadimda saroy xizmatida bo‘lgan kishi (1:10 izohiga qarang).

5:14 *ellik tirsak* — taxminan 23 metrga to‘g‘ri keladi.

5:14 *Dor tayyorlashsin...Mardoxayni o‘sha dorga osishsin* — yoki *Xodani tik o‘rnatishsin...Mardoxayni o‘ldirib, jasadini o‘sha xodaning uchiga qoqishsin*.

5:14 *dor* — yoki *xoda*.

6:2 *shoh Axashverash* — 1:1 ning birinchi izohiga qarang.

6:4 *...dorga uni ostirish to‘g‘risida...* — yoki *...xodaning uchiga uni qoqtirish to‘g‘risida...*.

6:8 *...shohona zeb–ziynatlar...* — toj shaklida yasalgan otlarning maxsus bezagi bo‘lishi mumkin.

6:14 *mulozim* — qadimda saroy xizmatida bo‘lgan kishi (1:10 izohiga qarang).

7:4 *Men va mening xalqim...sotilganmiz* — Xomon shohga va’da qilgan pulga ishora (3:9 ga qarang).

7:5 *Shoh Axashverash* — 1:1 ning birinchi izohiga qarang.

7:8 *…Xomonning yuzini yopdilar* — bu harakat uning o‘limga hukm qilinganini bildirgan.

7:9 *mulozim* — qadimda saroy xizmatida bo‘lgan kishi (1:10 izohiga qarang).

7:9 *ellik tirsak* — taxminan 23 metrga to‘g‘ri keladi.

7:9 *…dor tayyorlab qo‘ygan. Bu dorga Mardoxayni osmoqchi…O‘sha dorga Xomonning o‘zini osinglar!* — yoki *…xodani tik o‘rnatib qo‘ygan. U Mardoxayni o‘ldirib, jasadini bu xodaning uchiga qoqmoqchi…O‘sha xodaga Xomonning o‘zini qoqinglar!*

7:10 *…dorga Xomonning o‘zini osdilar* — yoki *…xodaning uchiga Xomonning o‘zini qoqdilar*.

8:1 *shoh Axashverash* — 1:1 ning birinchi izohiga qarang.

8:3 *O‘gax* — 3:1 ning ikkinchi izohiga qarang.

8:7 *…uni dorga ostirdim* — yoki *…uni o‘ldirib, xodaning uchiga qoqtirdim*.

8:9 *Shavon oyi* — ibroniy kalendarining uchinchi oyi. Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan mayning o‘rtasidan boshlanadi.

8:9 *Habashiston* — ibroniycha matnda *Kush* (1:1 ning ikkinchi izohiga qarang).

8:12 *Adar oyi* — 3:7 ning to‘rtinchi izohiga qarang.

8:12 *…Adar oyining o‘n uchinchi kuni…* — 3:13 ga qarang.

9:1 *Adar oyi* — 3:7 ning to‘rtinchi izohiga qarang.

9:2 *shoh Axashverash* — 1:1 ning birinchi izohiga qarang.

9:2 *…hamma viloyatlardagi o‘zlari yashaydigan shaharlarda…* — yoki *…har bir shahardagi o‘zlari yashaydigan dahada…*.

9:13 *…dorga osilsin* — yoki *…xodaning uchiga qoqilsin* (shu bobning 14, 25–oyatlarida ham bor).

9:24 *O‘gax* — 3:1 ning ikkinchi izohiga qarang.

9:24 *pur* — akkad–bobil tilidagi so‘z bo‘lib, qur’a degan ma’noni bildiradi.

9:25 *…Ester shohning huzuriga kirganda…* — 5:1-8, 7:1-10, 8:3-4 ga qarang.

9:25 *…shoh yana boshqa bir maktub orqali farmon bergandi* — 8:5-14 ga qarang.

9:26 *Purim* — yahudiylarning bu bayrami har yili Adar oyining 14-15–kunlari nishonlangan. Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan fevralning o‘rtasidan boshlanadi.

9:26 *Mardoxayning maktubi* — shu bobning 20-22–oyatlariga qarang.

9:29 *o‘sha maktub* — shu bobning 20-22–oyatlariga qarang.

10:1 *Shoh Axashverash* — 1:1 ning birinchi izohiga qarang.

AYUB

PAYG‘AMBAR KITOBI

Kirish

Ayub kitobida bayon qilingan voqealar taxminan Ibrohim, Is’hoq va Yoqub payg‘ambarlar davrlarida yuz beradi. Mazkur kitob zamirida barcha zamonlar uchun dolzarb bo‘lgan quyidagicha savol yotadi: “Nima uchun Xudo solih kishilarning bu hayotda azob tortishlariga yo‘l qo‘yadi?”

Ayub g‘oyat boy kishi edi. U chin dildan Xudoga sajda qiladi. U nafaqat yaxshi inson, balki Xudoga sodiq, solih kishi bo‘ladi. Lekin shayton Xudoga Ayubni yomonlab, Ayub Xudodan olayotgan baraka tufayligina Unga xizmat qilayotganini aytadi. Shundan keyin Xudo shaytonga Ayubni sinab ko‘rishga ijozat beradi. U shaytonga Ayubni boyligidan, farzandlaridan va nihoyat sog‘ligidan mahrum qilishga ruxsat beradi. Shunda ham Ayub Xudoga sodiq bo‘lib qoladi.

Ayubning boshiga kulfat tushganda, uch do‘sti uni yupatishga keladi. Ular, sog‘lik va farovonlik — Xudo marhamatining belgisi, deb ishonadilar. Ayub sog‘ligidan ham, farovon hayotidan ham ayrilgani uchun, ular Ayubga, Xudo seni qandaydir gunohing uchun jazolayapti, deb aytadilar. Ayub esa o‘zining aybsizligini ta’kidlab, do‘stlarining gaplarini o‘rinsiz deb biladi. Ayub do‘stlari bilan ko‘p bahslashadi, ammo ikkala tomon ham bir–birining gaplari noto‘g‘ri ekanini isbotlay olmaydi. Nihoyat, ular bahslashishni to‘xtatadilar.

Bahs davomida qattiq azob chekayotgan Ayub bir necha marta Xudoga yolvoradi. “Nima sababdan qiynalayotganimni tushuntir”, deb Undan talab qiladi. Lekin Xudo uning bu savoliga javob bermaydi. Aksincha, Ayubga zohir bo‘lib, O‘zining buyuk ishlari haqida so‘z yuritadi, Ayubni so‘roqqa tutadi. Ayub Xudoning buyukligi va donoligiga tan beradi. Ayub kam bilsa ham ko‘p gapirgani uchun Xudo unga tanbeh beradi. Biroq sodiqligi uchun uni maqtaydi, unga ko‘p baraka beradi. Kitob yakunida Ayubning farovonligi, yana farzandlar ko‘rgani va oldingidan ikki baravar ko‘proq boylik orttirgani haqida bayon qilinadi.

Xullas, azob–uqubatlar orqali Ayub Xudoning butun borliq ustidan yagona Hukmdor ekanini bilib oladi, har qanday vaziyatda ham faqat Xudoga sajda qilish kerakligini tan oladi. Mazkur kitob bizga hayotimizning eng og‘ir damlarida ham umidimizni Xudoga bog‘lashni va faqat Unga suyanib yashashni o‘rgatadi.

1–BOB

Shayton Ayubni sinaydi

1 Bir vaqtlar Uz* degan yurtda Ayub ismli bir odam yashar edi. Bu odam aybsiz va
solih edi. U Xudodan qo‘rqardi, fosiqlikdan yuz o‘girgan edi. 2 Uning yetti o‘g‘li va uch
qizi bor edi. 3 Uning yana yetti mingta qo‘yi, uch mingta tuyasi, omochga qo‘shiladigan
besh yuz juft ho‘kizi, besh yuzta eshagi va juda ham ko‘p xizmatkorlari bor edi. Bu kishi
sharqda* yashaydiganlar orasida eng buyuk odam edi. 4 Ayubning o‘g‘illari bir–

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

birlarining uylariga borib, ziyofatlar uyushtirishar, opa–singillarini ham mehmonga chaqirishar edi. 5 Ziyofatlar tugagandan keyin Ayub farzandlarini chaqirtirardi. “Farzandlarim yuraklarida Xudoni la’natlab, gunoh qilgan bo‘lishlari mumkin”, deya erta tongda ularning har biri uchun kuydiriladigan qurbonliklar keltirib, ularni poklardi. Ayub har doim shunday qilar edi.

6 Bir kuni ilohiy zotlar* Egamizning oldiga kelishdi. Ularning orasida shayton* ham bor edi. 7 Shaytondan Egamiz:

— Qayerdan kelyapsan? — deb so‘radi.

Shayton:

— Yer yuzining u yog‘idan bu yog‘iga yurib, aylanib chiqdim, — deb javob berdi.

8 Shaytonga Egamiz shunday dedi:

— Qulim Ayubni ko‘rdingmi? Yer yuzida unga o‘xshagan hech kim yo‘q. U aybsiz va solih odam. Mendan qo‘rqadi, fosiqlikdan yuz o‘girgan.

9 Shayton shunday javob berdi:

— Ayub bekordan–bekorga Sendan qo‘rqarmidi?! 10 Uning xonadonini, o‘zini, bor narsasini himoya qilasan–ku! Har bir qilgan ishiga baraka berasan. Qara, uning mol–qo‘ylari butun yurt bo‘ylab yoyilib ketgan. 11 Hozir undan bor narsasini olib qo‘ygin–chi! U yuzingga qarab Seni la’natlaydi.

12 Shaytonga Egamiz shunday dedi:

— Mayli, Ayubning bor–budi senga, faqatgina uning o‘ziga qarshi qo‘l ko‘tarma!

Shunday qilib, shayton Egamizning huzuridan ketdi.

Ayub bor–budidan mahrum bo‘ladi

13 Bir kuni Ayubning farzandlari ziyofat qilib o‘tirishgan edi. Ular eng katta akalarining uyida yig‘ilgandilar. 14 Ayubga bir xizmatkori quyidagi xabarni keltirdi: “Ho‘kizlaringizni omochga qo‘shib, yer haydayotgan edik. Eshaklar oldimizda o‘tlab yurgandi. 15 Bir to‘da Savoliklar* bizga hujum qilishdi. Ular hamma hayvonlarni o‘g‘irlab ketishdi. Dalada ishlayotganlarning hammasini esa o‘ldirishdi. Faqatgina men qochib qolishga ulgurdim. Shularni sizga aytishga keldim.” 16 U shu gaplarni aytib ulgurmasdanoq, yana bir xabarchi kelib, shunday dedi: “Osmondan yashin tushib, hamma qo‘yu cho‘ponlaringizni kuydirib yubordi. Faqatgina men qochib qolishga ulgurdim. Shularni sizga aytishga keldim.” 17 U gaplarini tugatmasdan turib, uchinchi xabarchi kelib shunday dedi: “Uch to‘da Xaldeylar* kelib, tuyalaringizni o‘g‘irlab ketishdi. Xizmatkorlaringizni esa o‘ldirishdi. Faqatgina men qochib qolishga ulgurdim. Shularni sizga aytishga keldim.” 18 U shu gaplarni aytayotgan ham ediki, yana bir xabarchi kelib dedi: “O‘g‘il–qizlaringiz eng katta akalarining uyida ziyofat qilib o‘tirishgan edi. 19 Birdaniga cho‘ldan qattiq shamol turib, uyni to‘rtala tomonidan urdi. Uy qulab tushib, farzandlaringizni bosib qoldi. Ularning hammasi halok bo‘ldi. Faqatgina men qochib qolishga ulgurdim. Shularni sizga aytishga keldim.”

20 Ayub turib, qayg‘udan kiyimini yirtib tashladi. Keyin sochini qirib tashlab*, yerga muk tushdi. 21 U shunday dedi: “Onamning qornidan yalang‘och tushgandim, dunyodan ham yalang‘och ketaman. Hamma narsamni Xudo bergan edi, Xudoning O‘zi olib qo‘ydi. Egamning nomiga hamdu sanolar bo‘lsin!”

22 Shuncha ko‘rgiliklardan keyin ham, Ayub Xudoni ayblamadi, gunoh qilmadi.

2–BOB

Shayton Ayubni takror sinaydi

1 Bir kuni ilohiy zotlar* Egamizning oldiga kelishdi. Shayton* ham Egamizning
huzuriga keldi. 2 Shaytondan Egamiz:
— Qayerdan kelyapsan? — deb so‘radi.
Shayton:
— Yer yuzining u yog‘idan bu yog‘iga yurib, aylanib chiqdim, — deb javob berdi.
3 Shaytonga Egamiz shunday dedi:
— Qulim Ayubni ko‘rdingmi? Yer yuzida unga o‘xshagan hech kim yo‘q. U aybsiz va
solih odam. Mendan qo‘rqadi, fosiqlikdan yuz o‘girgan. Sen esa bekorga Meni unga zarar
ko‘rsatishga undading. Qara, u hali ham solihligida mahkam turibdi.
4 Shayton shunday javob berdi:
— Joniga azob berib ko‘r–chi, nima qilar ekan?!* Ko‘rasan, inson o‘z jonini saqlab
qolish uchun hamma narsadan voz kechadi. 5 Hozir uning tanasini dardga yo‘liqtirgin, u
yuzingga qarab Seni la’natlaydi.
6 Shaytonga Egamiz shunday dedi:
— Mayli, Ayubni qo‘lingga topshirdim. Uni faqat tirik qoldirgin.
7 Shayton Egamizning huzuridan chiqib, Ayubni boshidan oyog‘igacha jirkanchli
yaralar bilan qoplab tashladi. 8 Ayub kul uyumlari orasida, sopol parchasi bilan
yaralarini qashlab o‘tirardi.
9 Xotini unga:
— Hamon solihligingizda mahkam turaverasizmi?! Xudoni la’natlang–da, o‘lib qo‘ya
qoling, — dedi.
10 Ayub esa xotiniga shunday javob berdi:
— Sen ahmoq xotinlarday gapiryapsan. Xudoning qo‘lidan yaxshi narsalarni qabul
qilamiz–u, yomonlarini olmaymizmi?
Shuncha azob–uqubatdan keyin ham Ayub Xudoga qarshi gapirib, gunoh qilmadi.

Ayubning do‘stlari keladi

11 Ayubning boshiga tushgan kulfatlar haqida uning uch do‘sti eshitdi. Bular
Temonlik Elifaz, Shuvaxlik Bildad va Namaxlik* Zo‘far degan odamlar edi. Ular
yig‘ilishib, Ayubga hamdardlik bildirish va tasalli berish niyatida uni ko‘rishga keldilar.
12 Do‘stlari Ayubni uzoqdan ko‘rib taniy olmadilar. Qattiq dod–faryod solib, kiyimlarini
yirtishdi, boshlari uzra tuproq sochishdi. 13 Ular Ayub bilan birga yetti kun–yetti kecha
yerda o‘tirdilar. Mana shu kunlar davomida hech biri Ayubga gapirmadi, chunki u juda
qattiq azob chekayotganini ko‘rib turar edilar.

3–BOB

Ayubning ilk nutqi: u tug‘ilgan kunini la’natlaydi

1 Oxiri Ayub so‘z boshlab, o‘zi dunyoga kelgan kunni la’natladi. 2 U shunday dedi:

3 “Men tug‘ilgan kun qirilib ketsin,
Men yaratilgan kecha la’nati bo‘lsin.
4 O‘sha kun zulmatga aylanib qolsin!

Hatto Xudo ham shu kunni eslamasin,
O‘sha kun hech qachon nur ko‘rmasin.
5 Zimziyo zulmat uni qamrasin,
U kunni bulutlar berkitsin,
Quyosh nurini qorong‘ilik to‘sib qo‘ysin.
6 Ha, o‘sha kechani zulmat yutib yuborsin!
Yil kunlari orasida hech qachon sanalmasin,
Oylarning hisobiga o‘sha kecha kirmasin.
7 O‘sha kecha qisir bo‘lsin,
Undan shodlik ovozi yangramasin.
8 Maxluq Levitanni* chaqirishga qodir bo‘lganlar uni qarg‘asin,
Ha, la’nat o‘qiydiganlar o‘sha kechaga qarg‘ish yog‘dirsin.
9 O‘sha kechada tong yulduzlari charaqlamasin.
O‘sha kecha yorug‘likka umid qilsin–u,
Ammo tong shu’lasini ko‘rmasin.
10 Onamning bachadonini berkitmagani uchun,
Meni shuncha qayg‘udan xoli qilmagani uchun
O‘sha kecha la’nati bo‘lsin.

11 Nima uchun o‘lik tug‘ilmadim?!
Onam qornidan tushiboq, o‘lmadim?!
12 Nima uchun onam meni tizzalarida olib o‘tirdi ekan?!
Nima uchun meni emizdi ekan?!
13 O‘lganimda edi, hozir tinch yotgan bo‘lardim.
Uxlab, orom olib yotgan bo‘lardim.
14 Vayronalarni tiklashga qodir bo‘lgan
Shohu amaldorlar bilan birga bo‘lardim.
15 Tillaga boy, uylarini kumushga to‘ldirgan
Shahzodalar qatori yotgan bo‘lardim.
16 Nima uchun o‘lik tug‘ilgan boladay bo‘lmadim?!
Nima uchun yorug‘lik ko‘rmagan chaqaloqday ko‘milmadim?!
17 Axir, qabrda fosiqlar ham
Fosiqlik qilishdan to‘xtaydilar–ku!
Charchaganlar ham dam oladilar–ku!
18 Asirlar u yerda jam bo‘lib tinch yashaydi,
Nazoratchilarning baqir–chaqiri eshitilmaydi.
19 Katta ham, kichik ham u yerda bordir,
Qullar ham nihoyat u yerda ozoddir.

20 Nima uchun qiynalganga yorug‘lik berilgan,
Qayg‘uga botganga esa hayot ato qilingan?!
21 Ular o‘limni kutadilar, lekin o‘lim kelmaydi,
Qimmatbaho xazinadan ham ko‘ra,
Ko‘proq o‘limni izlaydi ular.
22 O‘lim topganlarida ular juda quvonadi,

Shodlikdan boshlari osmonga yetadi.
23 Nima uchun yo‘lni ko‘rolmaydiganlarga yorug‘lik berilgan?!
Axir, Xudo ularning yo‘lini to‘sib qo‘ygan–ku!
24 Non yeyish o‘rniga og‘ir uf tortaman,
Chuqur ohu nolalarim suvday oqib chiqyapti.
25 Ha, nimadan qo‘rqqan bo‘lsam, o‘sha boshimga tushdi.
Xavfsiraganlarim sodir bo‘ldi.
26 Ko‘nglim tinch emas, menda xotirjamlik yo‘q,
Tinchlik yo‘q, g‘am–tashvish esa kelaveradi.”

4–BOB

Elifaz gapiradi: u Ayubni gunohda ayblaydi

1 Shundan keyin Temonlik* Elifaz Ayubga shunday dedi:

2 “Bir gap aytsam, xafa bo‘lmaysanmi?
Axir, kim gapirmay jim tura oladi?!
3 Sen ko‘plarga nasihat qilar eding.
Ojizlarga yordam berar eding.
4 Qoqilganlarga so‘zlaring bilan dalda berarding,
Og‘ir yuk ostida ezilganlarga kuch bag‘ishlarding.
5 Endi esa azob–uqubatga uchraganingda tushkunlikka tushyapsan,
O‘z boshingga tushganlardan sarosimada o‘tiribsan.
6 Xudodan qo‘rqishing umiding bo‘lishi kerak emasmi?!
Yo‘llaring to‘g‘riligi senga umid bag‘ishlamaydimi?!

7 O‘ylab ko‘rgin–chi, qachon aybsiz inson halok bo‘lgan?!
Biror yerda solih kishi hech yo‘q qilinganmi?!
8 O‘z hayotimda ko‘rganman, kim yovuzlik,
G‘am–g‘ussa eksa, xuddi o‘shani o‘radi.
9 Xudoning nafasi ularni o‘ldiradi,
Xudoning g‘azabidan fosiqlar daf bo‘ladi.
10 Ularning shernikiday bo‘lgan ovozlarini Xudo o‘chiradi,
O‘sha maxluqlarning tishlarini Xudo sindiradi.
11 O‘lja yo‘qligidan u sherlar halok bo‘ladi,
Shervachchalari ham uzoqlarga tarqalib ketadi.

12 Menga bir so‘z yashirincha keldi,
Qulog‘imga shivirlab eshitildi.
13 Insonlar chuqur uyquda bo‘lganda,
Tashvishli tushlarda bu so‘z keldi.
14 Meni qo‘rquv–qaltiroq bosdi,
Butun vujudim larzaga keldi.
15 Bir ruh yuzimni silab o‘tdi,
Shunda tuklarim tikka bo‘lib ketdi.
16 Ruh to‘xtab, qimirlamay turdi,

Ammo uni aniq koʻrmadim.
Koʻz oldimda bir sharpa turar edi.
Sukunat choʻkdi, keyin bir ovoz eshitdim:
17 «Insonlar Xudoning oldida solih boʻla oladimi?!
Odamlar Yaratuvchisining oldida pok boʻla oladimi?!
18 Axir, Xudo hatto Oʻz farishtalariga ishonmaydi–ku,
Ulardan ham ayb topadi–ku!
19 Shunday ekan, tuproqdan yaratilgan insonlardan,
Loydan bino boʻlgan, kuyaday eziladigan
Odamlardan qanchalar ayb topadi?!
20 Axir, ular ertalab bor,
Kechasi esa yoʻq boʻlib ketadigan insonlar–ku!
Ularning nomi abadiy oʻchib ketadi.
21 Chodirlarining arqonlari uzib tashlanadi,
Ular donolikka yetishmay halok boʻladilar.»

5–BOB

Elifaz gapida davom etadi

1 Qani, Ayub, hozir chaqirib koʻr–chi,
Kim senga javob berar ekan?
Qaysi farishta senga yordamga kelar ekan?
2 Ranj–alam nodonni* halok qiladi,
Hasad soddani oʻldiradi.
3 Nodonlarning ildiz otib, koʻkarganini koʻrdim,
Birdaniga ularning uylarini la’natladim.
4 Ularning farzandlari xavfdan uzoq boʻlmaydi.
Hukm paytida ularni ezadilar,
Lekin hech kim ularni himoya qilmaydi.
5 Nodonlar yetishtirgan hosilni och qolganlar yeb qoʻyadi,
Hatto tikanlar bilan oʻralganlarini ham olib qoʻyadi.
Nodonlarning boyligini chanqaganlar yutib yuboradi.
6 Axir, qaygʻu yerdan unib chiqmaydi–ku,
Gʻam–tashvish dalada oʻsmaydi–ku!
7 Alangadan uchqun sakrab chiqqani kabi,
Inson ham oʻzi uchun muammo keltirib chiqaradi.

8 Men Xudoga intilgan boʻlar edim,
Oʻz arzimni Xudoga aytgan boʻlardim.
9 U shunday buyuk ishlar qiladiki,
Ularga insonning aqli yetmaydi.
Xudo koʻrsatgan moʻjizalarning son–sanogʻi yoʻq.
10 U yer yuziga yomgʻir yogʻdiradi,
Dalalarni sugʻoradi.
11 Xor boʻlganlarni koʻtaradi,

Qayg‘uga to‘lganlarni shodlikka to‘ldiradi.
12 U ayyorlarning rejalarini puchga chiqaradi,
Shunda ularning qo‘lidan hech narsa kelmaydi.
13 U donolarni o‘zlarining ayyorligi orqali tutib oladi,
Egrilarning niyatlarini puchga chiqaradi.
14 Kunduz kuni ham ular zulmatda qolishadi,
Yop–yorug‘ kunda ham paypaslanib yurishadi.
15 Lekin Xudo faqirlarni egrilarning achchiq so‘zlaridan,
Zolimlarning changalidan qutqaradi.
16 Shu bois kambag‘allarning umidi bor,
Nohaqlikning esa og‘zi yopiladi.

17 Xudoning pand–nasihatini olganlar qanday baxtlidir,
Shuning uchun Qodir Xudoning tanbehini rad qilmagin.
18 Xudo yaralaydi, ammo O‘zi bog‘lab qo‘yadi.
Xudo uradi, lekin yana O‘zi shifo beradi.
19 U seni olti g‘am–tashvishdan qutqaradi,
Ha, yetti qayg‘u–alam senga yaqinlashmaydi.
20 Qurg‘oqchilik paytida Xudo seni o‘limdan,
Urush paytida esa qilichdan saqlaydi.
21 Xudo seni zaharli tillardan himoya qiladi,
Halokat kelganda sen qo‘rquvga tushib qolmaysan.
22 Vayronayu qurg‘oqchilik ustidan kuladigan bo‘lasan,
Yer yuzidagi yovvoyi hayvonlardan qo‘rqmaydigan bo‘lasan.
23 Yer haydaganingda dalangda toshlar bo‘lmaydi,
Yovvoyi hayvonlar senga hujum qilmaydi.
24 Uying bexatar ekanligini bilasan,
Podalaringni tekshirganingda hammasi o‘z joyida bo‘ladi.
25 Farzandlaring ko‘p bo‘ladi,
Avloding daladagi maysaday ko‘payadi.
26 Sen bevaqt qabrga kirmaysan,
O‘z vaqtida yig‘ilgan bug‘doy doniday bo‘lasan.
27 Bularning hammasi to‘g‘ri,
O‘z tajribamizdan bilamiz.
Endi nasihatlarimizga quloq sol,
Ularni qabul qil.”

6–BOB

Ayubning ikkinchi nutqi: nohaqlik qilmagani haqida

1 Shundan keyin Ayub yana gapirdi:

2 “Qani endi, qayg‘ularimni o‘lchashning iloji bo‘lsa edi,
Mening kulfatlarim tarozida tortib ko‘rilsa edi.
3 Ular dengiz qumlaridan ham og‘irroq chiqqan bo‘lar edi.

Shuning uchun ham bo‘lar–bo‘lmas gaplar aytdim.
4 Qodir Xudo otgan nayzalar* tanamdadir,
Ruhim ularning zahridan ichmoqda.
Xudoning barcha dahshatlari menga qarshi tayyorlangan.
5 Asov eshak o‘t yo‘qligida hangraydi–ku!
Ho‘kiz ham oxurida yem bo‘lmasa bo‘kiradi–ku!
6 Tuzsiz ovqatni yeb bo‘lmaydi–ku!
Pishirilmagan tuxum oqi axir, naqadar bemaza!
7 Ularni ko‘rib ishtaham yo‘qoladi.
Ularni yeyishni o‘ylasam ko‘nglim ayniydi.

8 Qani endi, tilagim bajo bo‘lsa edi,
Xudo niyatimni bajo keltirsa edi!
9 Qani endi, Xudo meni ezib tashlashga rozi bo‘lsa edi,
Qo‘liga erk berib, jonimni olsa edi.
10 Ana o‘shanda men tasalli topgan bo‘lardim,
Hatto og‘riqlarimga qaramay quvongan bo‘lardim,
Chunki Muqaddas Xudoning so‘zlarini men rad qilganim yo‘q.
11 Qachongacha kutaman axir, kuchim yetarmikan?!
Oxiri nima bo‘ladi o‘zi?
Nima uchun sabr–toqat qilishim kerak?!
12 Men toshday qattiq emasman–ku!
Mening tanam temirdan emas–ku!
13 Yo‘q, o‘zimga o‘zim yordam berolmayman,
Hech bir chora–ilojim yo‘q.

14 Qayg‘u–alam tortayotgan inson
Qodir Xudodan qo‘rqishni rad qilgan bo‘lsa ham,
O‘sha insonga sodiq do‘stlar kerak*.
15 Ammo do‘stlarimga ham ishonib bo‘lmaydi,
Ular oqib o‘tib ketadigan irmoqlardaydir.
16 O‘sha irmoqlar muzu qor eriganda toshib oqadi,
17 Issiq havoda esa ular qurib qoladi,
Kun qiziganda g‘oyib bo‘ladi.
18 Karvonlar bu irmoqlarni qidirib,
Yo‘llaridan adashib ketadilar.
Yurib–yurib, cho‘lda halok bo‘ladilar.
19 Temo yurtining karvonlari ham suv qidirib keladilar,
Shava yurtidan* kelganlar ham suvga umid qiladilar.
20 Ammo o‘sha irmoqlarga ishonganlar tushkunlikka tushadilar,
U yerga borib, gangib qoladilar.
21 Sizlar ham men uchun xuddi o‘sha irmoqlardaysizlar.
Kulfatimni ko‘rib turib, vahimaga tushyapsizlar.
22 Sizlardan biron narsa so‘radimmi?!
Yoki boyligingizdan berib, meni qutqaringlar, deb aytdimmi?!

23 Dushmanlarimning qo‘lidan qutqaringlar, dedimmi?!
Yoki zo‘ravonlardan meni xalos qilinglar, deb so‘radimmi?!

24 Menga o‘rgatinglar, mayli jim turaman.
Qanday noto‘g‘ri ish qilganimni tushuntirib beringlar.
25 Haqiqat so‘zlari naqadar achchiq!
Lekin gaplaringiz nimani isbotlayapti?
26 Meni behuda gaplarni aytyapti, deb o‘ylaysiz.
Shunday ekan, nimaga tushkunlikda aytganlarimga javob qaytarasiz?!
27 Sizlar hatto yetimlar uchun qur’a tashlagan bo‘lardingiz.
Do‘stingiz ustidan savdolashib, uni sotgan bo‘lardingiz.

28 Endi marhamat qilib menga qaranglar,
Men sizlarga yolg‘on gapirmayman.
29 Bas endi, nohaqlik qilmang.
Axir, mening aybim yo‘q–ku!
30 Yo gapimda biror nohaqlik bormi?
Tilim yovuzlikning ta’mini ajrata bilmaydimi?!

7–BOB

1 Insonning yerdagi mehnati mashaqqatli–ku!
Uning kunlari mardikorning kuniga o‘xshaydi–ku!
2 Ha, inson soyani qo‘msagan qulga o‘xshaydi!
O‘z haqini kutgan mardikordaydir u!
3 Menga ham maqsadsiz oylar,
Qayg‘uga to‘la tunlar berilgan.
4 Yotganimda: «Qachon tong otarkan?» — deyman,
Lekin tun juda cho‘zilib ketadi,
Tong otguncha ag‘nab chiqaman.
5 Tanamni qurt va yara bosib ketgan,
Terim yorilib, yiringlab ketgan.
6 Kunlarim bo‘zchining mokisidan* ham tezroq o‘tadi,
Aslo umid bag‘ishlamay o‘tib ketaveradi.

Ayub Xudoga yolvoradi

7 Ey Xudoyim, hayotim bir nafasday ekanligini yodingda tut,
Ko‘zlarim endi hech qachon yaxshilikni ko‘rmaydi.
8 Hozir meni ko‘rib turibsan, lekin bu uzoqqa cho‘zilmas,
Meni qidirasan, lekin men o‘shanda bo‘lmayman.
9 Bulut tarqalib, yo‘q bo‘lib ketadi.
Xuddi shunga o‘xshab, o‘liklar diyoriga* ketganlar qaytib kelmaydi.
10 Ular uylariga qaytib kelmaydilar,
O‘z yashagan joylarida ularni bilmaydilar.

11 Shuning uchun jim bo‘lmay,
O‘z dardimni bayon qilaman,

Alam–hasratda shikoyat qilaman.
12 Ey Xudoyim! Nima uchun ustimdan qo‘riqchi qo‘yding?
Men dengizmanmi yoki dengiz maxluqimanmi?*
13 «To‘shagim menga tasalli berar,
Uyqu dardimni yengillashtirar», — desam,
14 Tushlar orqali meni qo‘rqitasan,
Vahiylar orqali dahshatga solasan.
15 Shunda men, qani endi bo‘g‘ilib qo‘ya qolsam, deyman,
Axir, shu jismimda yashashdan ko‘ra, o‘lim afzalroq.
16 Hayotimdan nafratlanyapman, abadiy yashamayman.
Hayotim bir nafasday bo‘lsa o‘zi, meni tinch qo‘ygin, axir!
17 Inson kim bo‘libdiki,
Unga shunchalik e’tibor bersang?!
Odam kim bo‘libdiki,
U haqda o‘ylasang?!
18 Har tong uni tekshirib,
Har lahzada sinasang?!
19 Bir lahzaga mendan yuz o‘girgin,
Tinch qo‘ygin, hech bo‘lmasa bir yutinay.
20 Gunoh qilgan bo‘lsam, Senga nima, ey odamzod Qo‘riqchisi?!
Nima uchun meni O‘zingga nishon qilib olding?!
Sening menda qasding bormi?!*
21 Nima uchun gunohimni kechirib,
Aybimdan forig‘ qilmaysan?
Axir, yaqinda tuproqqa qaytaman–ku!
Meni qidirganingda esa yo‘q bo‘lib ketgan bo‘laman.”

8–BOB

Bildad gapiradi: u Ayubni tavbaga chaqiradi

1 Shuvaxlik* Bildad Ayubga shunday dedi:

2 “Qachongacha shunday gaplarni gapirasan?
Og‘zingdan chiqqan so‘zlar shamolga o‘xshaydi–ya!
3 Xudo adolatga xiyonat qiladimi?
Qodir Xudo haqiqatning yo‘lini to‘sadimi?
4 Farzandlaring Unga qarshi gunoh qilgan bo‘lsa,
Xudo ularni gunohlari uchun jazoladi.
5 Xudoga yuz burgin,
Qodir Xudoga yolvorgin.
6 Agar pok va solih bo‘lsang,
Albatta U senga qo‘lini uzatib,
Seni o‘z haqqoniy joyingga qaytaradi.
7 Oxiri shunchalik farovon bo‘lasanki,
Avvalgi holating nochorday tuyuladi.

8 Ana, oʻtib ketganlarga qaragin,
Ajdodlarimizning qilganlariga e’tibor bergin.
9 Axir, biz kechagina tugʻilganmiz, hech narsa bilmaymiz,
Hayotimiz ham soyadek oʻtib ketadi.
10 Ajdodlarimiz senga muallim boʻladi,
Ularning aql–zakovatidan saboq ol.

11 Toʻqayzor boʻlmasa qamish oʻsadimi?!
Suv boʻlmagan joyda qamish boʻy choʻzadimi?!
12 Qamishlar hali koʻkarib turgan paytdayoq,
Kesilishga tayyor boʻlmay turib,
Hamma oʻtlardan oldin soʻlib qoladi.
13 Ha, Xudoni unutganlar ham shu koʻyga tushadi,
Betavfiqlarning umidi puchga chiqadi.
14 Ular umid bogʻlagan narsalar juda moʻrtdir,
Ular ishongan narsalar oʻrgimchakning toʻrlaridaydir.
15 Ular oʻz uyiga suyanadilar, ammo uy buzilib ketadi.
Uyini mahkam ushlaydilar, lekin uy bardosh bermaydi.
16 Fosiqlar yaxshi sugʻorilgan,
Quyosh nuri ostida oʻsayotgan butaga oʻxshaydilar,
Novdalari butun bogʻ boʻylab yoyilib ketgan.
17 Ildizlari toshlarga chirmashib,
Oʻsha yerdan oʻziga joy qidiradi.
18 Lekin ildiz yulib tashlanganda,
Oʻsgan joyi ham bilinmaydi.
19 Ha, fosiqlarning shodligi uzoqqa choʻzilmaydi,
Boshqalar chiqib, ularning oʻrnini oladi.

20 Aybsiz kishini Xudo hech rad qilmaydi,
Yovuzlarga esa yordam qoʻlini uzatmaydi.
21 U hali ogʻzingni kulgi bilan toʻldiradi,
Lablaringdan esa shodlik sadosini yangratadi.
22 Sendan nafratlanganlar uyatga qoladilar,
Fosiqlarning chodiri vayron boʻladi.”

9–BOB

Ayubning uchinchi nutqi: Xudodan qutqaradigan hakam yoʻq

1 Ayub javob berib, shunday dedi:

2 “Ha, bilaman, aytganlaringning hammasi toʻgʻri,
Lekin qanday qilib inson Xudoning nazarida haq boʻla oladi?
3 Agar biror inson Xudo bilan bahsga kirishsa,
U Xudoning mingta savolidan bittasiga ham javob bera olmasdi.
4 Ha, Xudo dono va qudratlidir,

Kim Xudoga qarshi chiqib, Undan ustun bo‘lgan?!
5 Xudo ogohlantirmay tog‘larni ag‘daradi,
G‘azab alangasida ularni yiqitadi.
6 Yerni joyidan qo‘zg‘atib, silkitadi,
Zamin ustunlarini* titratadi.
7 Quyoshga amr bersa, u nur sochmaydi,
Yulduzlarning nurini o‘chirishga qodir Xudodir U.
8 Uning O‘zi samoni yoygan*,
Dengiz to‘lqinlarini toptab yuradi*.
9 Hulkar* yulduzini, Katta ayiq burji va Parvin* yulduzlarini,
Butun janubdagi yulduz turkumlarini yaratgan Xudodir U.
10 Inson aqli bovar qilmaydigan buyuk ishlar qiladi Xudo,
U qilgan mo‘jizalarning son–sanog‘i yo‘qdir.
11 U yonginamdan o‘tib ketsa ham,
Men Uni ko‘ra olmayman.
O‘z yo‘lida davom etib ketaveradi,
Uning o‘tganini payqamay qolaman.
12 U olib qo‘yaman, desa, kim to‘xtata oladi?!
Kim Undan: «Nima qilyapsan?» deb so‘ray oladi?!

13 Xudo O‘z g‘azabini tutib turmaydi,
Hatto maxluq Rahob* yordamchilari Uning oyog‘i ostida qaltiraydi.
14 Men kim bo‘libmanki, Unga javob bera olsam,
U bilan bahslashish uchun kerakli so‘zlar tilimga kelsa?!
15 Aybsiz bo‘lsam ham, Unga javob bera olmagan bo‘lardim,
Hakamdan faqat rahm–shafqat tilagan bo‘lardim.
16 Agar Uni chaqirsam, U menga javob bersa ham,
Gaplarimga quloq solishiga ishonmayman.
17 Xudo bo‘ron chaqirib, meni ezmoqda*,
Hech bir sababsiz yaralarimni ko‘paytirmoqda.
18 Nafasimni rostlab olishga ham imkon bermayapti,
Yuragimni qayg‘uga to‘ldiryapti.
19 Agar kuch sinalsa, albatta U eng kuchlisi bo‘lib chiqadi.
Odillik masalasida esa kim Uni mahkamaga chaqirib keladi?!
20 Gunohsiz bo‘lsam ham, o‘z og‘zim meni aybdor deb topadi,
Aybsiz bo‘lsam ham, o‘z og‘zim meni egri deb hukm qiladi.
21 Aybsizman, ammo menga baribir,
O‘z hayotimdan nafratlanyapman.
22 Eh, hammasi baribir ekan, shuning uchun ham:
«U aybsizni ham, fosiqni ham halok qiladi», deb aytaman.
23 Kulfat kutilmaganda odamga o‘lim keltirsa,
Aybsizning boshiga tushgan ofatdan Xudo kuladi.
24 Butun yer yuzi fosiqlar qo‘lida,
Xudo hakamlarning ko‘zlarini bog‘lab qo‘ygan.
Agar U bog‘lamagan bo‘lsa,

Yana kim bog‘lagan bo‘lishi mumkin?!

25 Hayotim chopag‘on kishidan ham tezroq o‘tib ketadi.
Shunchalik tezki, hech farog‘at ko‘rmay o‘tib ketaman.
26 Umrim tez suzadigan qayiqlarday ko‘zga ko‘rinmay ketadi,
O‘z o‘ljasiga tashlangan burgutday tezdir.
27 «Endi hech nolimayman,
Qayg‘uli chehram yorishsin,
Xursand bo‘lay», degim keladi,
28 Lekin yanada ko‘proq keladigan g‘am–alamdan qo‘rqaman.
Axir, Sen meni aybsiz hisoblamaysan.
29 Modomiki, aybdor ekanman,
Harakat qilishimdan nima foyda bor?
30 Qor suvida cho‘milib,
Qo‘llarimni sovun bilan yuvsam–da,
31 Ey Xudo, Sen meni loy chuqurga tashlaysan,
Hatto kiyimlarim ham mendan nafratlanadi.
32 Xudo inson emaski, men U bilan bahslashsam,
Men bilan da’volashgin deb, Uni chaqirsam.
33 Ikkimiz oramizda hakam yo‘qki,
Bizni ajrim qilsa.
34 Hakam bo‘lganda, Xudoning tayog‘ini ustimdan olib tashlagan bo‘lardi,
O‘shanda Xudo meni boshqa dahshatga solmasdi.
35 Qo‘rqmasdan Unga gapira olgan bo‘lardim,
Lekin hozirgi ahvolimda unday qilolmayman.

10–BOB

Ayub Xudoga shikoyat qilmoqchi bo‘ladi

1 Hayotdan to‘ydim!
Evoh, endi bemalol shikoyat qilishdan,
Alam–hasrat bilan gapirishdan o‘zimni tiymayman.
2 Xudoga shunday deyman: «Meni hukm qilavermasdan,
Menga qarshi bo‘lgan da’volaringni ayt.
3 Meni ezishdan Senga biror foyda bormi o‘zi?
Fosiqlarga shodlik bilan farovonlik beryapsan–u,
Nima uchun meni — O‘z qo‘llaring ijodini rad etyapsan?!
4 Sening insonnikiga o‘xshash ko‘zlaring bormi?!
Sening dunyoqarashing insonlarniki bilan birmi?!
5 Umring inson umriday qisqami?!
Yillaring inson hayoti yillariday emas–ku!
6 Nima uchun mendan ayb qidirasan,
Gunoh topishga harakat qilasan?
7 Axir, O‘zing bilasan, men aybsizman,
Hech kim meni Sening qo‘lingdan qutqara olmaydi.

8 Axir, qo‘llaring bilan meni O‘zing yasagansan,
O‘zing meni yaratgansan,
Endi esa meni butunlay halok qilmoqchisan.
9 Sen meni loydan bunyod qilganingni eslagin.
Endi meni yana tuproqqa qaytarmoqchimisan?!
10 Meni sutday quyib,
Pishloqday qotirgan O‘zing–ku*.
11 Sen O‘zing meni etu teri bilan qoplab,
Menga suyagu paylar ato qilding.
12 Sen menga hayot bag‘ishlab, sadoqatli sevgingni ko‘rsatding.
O‘zing g‘amxo‘rlik qilib, hayotimni saqlading.
13 Lekin yuragingda boshqa bir niyat bor edi.
Sening o‘y–xayollaringni bilaman:
14 Gunoh qilsam, meni kuzatib turgan bo‘lasan,
Aybimni jazosiz qoldirmaysan.
15 Fosiq bo‘lsam, o‘zimdan ko‘ray!
Ammo aybsiz bo‘lsam ham,
Shunchalik uyatga qoldimki,
Shunchalik qayg‘uga botdimki,
Boshimni ko‘tara olmayapman.
16 Boshimni ko‘tarsam, sherday meni poylaysan,
O‘z buyuk qudratingni menga qarshi ishlatasan.
17 Menga qarshi yangi guvohlar chaqiraverasan.
Menga bo‘lgan g‘azabing yanada oshib boraveradi,
Ustimga yana yangi qo‘shinlar bostirib kelaveradilar.

18 Evoh, nima uchun meni bu dunyoga keltirding?
Qaniydi, tug‘ilishim bilanoq,
Birov meni ko‘rib ulgurmasdan,
O‘lib qo‘ya qolganimda edi.
19 Hech narsa ko‘rmagan bo‘lardim,
Onam qornidan to‘g‘ri qabrga borgan bo‘lardim.
20 Hayotim qisqa, kunlarim sanoqli emasmi, axir?!
Meni tinch qo‘y, ozgina bo‘lsa ham, xursand bo‘lay.
21 Hech kim qaytib kelmaydigan zulmat yurtiga*,
Tim qorong‘i yerga borishimdan oldin ozgina quvonay.
22 Tun yarmidagi zulmatday qorong‘i bo‘lgan yurtga ketaman.
Qop–qorong‘i hech bir tartib bo‘lmagan bir joyga,
Hatto nuri ham zulmat bo‘lgan yerga ketaman, axir!»”

11–BOB

Zo‘far gapiradi: u Ayubning jazoga loyiqligini ta’kidlaydi

1 Keyin Namaxlik* Zo‘far shunday dedi:

2 “Shuncha koʻp gap javobsiz qolaveradimi?
Koʻp gapirgan inson oqlanar ekanmi?
3 Bekorchi gaplaring boshqalarning ovozini oʻchirib qoʻydimi?
Nahotki mazax qilib aytgan gaplaring uchun hech kim seni uyaltirmasa?
4 Sen: «Men haqman, bunga ishonchim komil,
Oʻzim ham Xudoning nazarida pokman», deb aytasan.
5 Qani endi, Xudo gapirsa,
Uning Oʻzi senga qarshi ogʻiz ochsa edi.
6 Qani endi, U senga donolikning sirlarini bildirsa edi.
Axir, haqiqiy donolik koʻp qirrali–ku!
Bilib qoʻy, Xudo seni oʻz gunohlaringga yarasha jazolagani yoʻq,
Jazoni ancha kam beryapti.

7 Xoʻsh, Xudoning sirlarini anglay olasanmi?!
Qodir Xudoning komilligini bila olasanmi?!
8 Xudoning donoligi osmondan ham yuksakdir,
Sen nima qila olarding?!
Xudoning donoligi oʻliklar diyoridan* ham chuqurroqdir,
Sen nimani bila olarding?!
9 Uning oʻlchami yer tevaragidan ham uzunroq,
Dengizdan ham kengroqdir.
10 Xudo kelib, seni qamoqqa tashlasa,
Yoki hammani hukmga yigʻsa,
Kim Uni toʻxtata olardi?
11 Albatta U yolgʻonchilarni biladi,
Yovuzlikni koʻrganda, e’tiborga oladi–ku!
12 Asov eshakdan odam tugʻilmaganday,
Nodon* ham donolikka erisha olmaydi.

13 Oʻz yuragingni Xudoga bagʻishla,
Ibodat qilib, qoʻllaringni U tomon choʻzgin.
14 Qoʻllaring gunohdan bulgʻangan boʻlsa, poklagin,
Chodiringda yovuzlikka joy bermagin.
15 Shunda sen uyalmasdan boshingni tik koʻtarib yurasan.
Qoʻrquvdan xoli boʻlib, barqaror turasan.
16 Qaygʻularingni esdan chiqarasan,
Ular oqib ketgan suvlarday boʻlib qoladi.
17 Hayoting kunduzgi nurday yorugʻ boʻladi,
Har qanday zulmat tongday boʻlib qoladi.
18 Umiding borligi uchun ishonching komil boʻladi,
Atrofingda himoyang boʻlib, tinchlikda orom olasan.
19 Yotganingda hech kimdan qoʻrqmaydigan boʻlasan,
Hamma sendan marhamat istab keladi.
20 Fosiqlarning koʻz nuri soʻnadi,
Ular qochishga yoʻl topolmaydilar,

O‘lib qutulamiz, deb umid qiladilar.”

12–BOB

Ayubning to‘rtinchi nutqi: hammaga mazax bo‘lgani haqida

1 Ayub shunday deb javob berdi:

2 “Ha, sizlar hammaning o‘rniga gapirasizlar, to‘g‘rimi?
O‘lsangiz, donolik ham siz bilan birga o‘lsa kerak–a?!
3 Men ham bir–ikkita narsa bilaman,
Sizlar mendan ustun emassizlar.
Sizlar aytayotganlarni kim ham bilmas ekan?!

4 Men Xudoga iltijolar qilyapman.
Uning javob berishini kutyapman.
Do‘stlarim esa ustimdan kulaveradilar.
Solih va aybsiz bo‘lsam ham, hammaga mazax bo‘lib qoldim.
5 Betashvish yurganlar kulfatga takabburlik bilan qaraydilar.
Falokatni qoqilayotganlarning taqdiri deb biladilar.
6 O‘g‘rilarning chodirida ham tinchlik hukmron,
Xudoning g‘azabini keltiradiganlar ham xavf–xatarsiz yuribdi.
Go‘yo ular «gah» desa, Xudo qo‘liga qo‘nadi!*

7 Mana, hayvonlardan so‘ranglar,
Ular sizlarga o‘rgatadilar.
Osmondagi qushlardan so‘ranglar,
Ular sizlarga aytib beradilar.
8 Yerdan so‘ranglar, u sizlarga yo‘l–yo‘riq ko‘rsatadi.
Dengizdagi baliqlar sizlarga tushuntiradilar.
9 Mana shu jonzotlarning orasida qaysi biri
Hammasiga Egamiz sababchi ekanini bilmaydi?!
10 Har bir jonivorning hayotiyu
Insonlarning nafasi Uning qo‘lidadir.
11 Og‘iz ovqatning ta’mini biladi.
Xuddi shunday qilib, quloq ham eshitgan so‘zlarini sinab ko‘rishi kerak–ku?!
12 Aql–idrok uzoq umr ko‘rgan odamlarda,
Donolik keksalarda bo‘ladi.
13 Lekin haqiqiy donolik va qudrat Xudodadir.
Maslahat va aql–idrok Unga tegishlidir.
14 Agar Xudo nimanidir buzsa, qayta qurib bo‘lmaydi,
Agar U qamab qo‘ysa, hech kim qochib keta olmaydi.
15 Agar U yomg‘irni ushlab tursa, yer cho‘lga aylanadi.
Suvlarni qo‘yib yuborsa, yer yuzini suv bosadi.
16 Kuch va zafar Xudoga tegishli!
Yolg‘onchiyu aldanganlar ham Uning qo‘lida!
17 U maslahatchilarni qip–yalang‘och qilib qo‘yadi,

Hakamlarni ham aqldan ozdiradi.
18 Xudo shohlarning ham to‘nlarini yechib tashlaydi.
Ularni qul qilib, bellariga arqon bog‘lab qo‘yadi.
19 Ruhoniylarni ham qip–yalang‘och qilib qo‘yadi,
Mustahkam o‘rnashganlarni Xudo ag‘darib tashlaydi.
20 Ishonchli maslahatchilarni tildan qoldiradi,
Oqsoqollarni esa idrokidan mahrum qiladi.
21 Shahzodalarning ustidan sharmandalik yog‘diradi,
Kuchlilarning qurol–aslahalarini tortib oladi.
22 Xudo zulmatning eng yashirin joylarini ochadi,
Tim qorong‘iliklarni ham yoritadi.
23 Xalqlarni yuksaltiradi–yu, yana O‘zi ularni halokatga duchor qiladi,
Xalqlarni ko‘paytiradi–da, keyin ularni tarqatib yuboradi.
24 Yer yuzidagi yo‘lboshchilarni aql–zakovatdan mahrum qiladi,
Ularni so‘qmoqsiz cho‘llarda sargardon qilib qo‘yadi.
25 Nursiz bir qorong‘ilikda ular paypaslanib yuradilar.
Xudo ularni mast odamday qilib qo‘yadi,
Ular dovdirab yuradigan bo‘lib qoladilar.

13–BOB

Ayub Xudo bilan da’volashmoqchi bo‘ladi

1 Bularning hammasini o‘z ko‘zlarim bilan ko‘rganman.
O‘z qulog‘im bilan eshitib, anglab olganman.
2 Sizlar bilganlarni men ham bilaman,
Sizlar mendan ustun emassizlar.
3 Qani endi, Qodir Xudo bilan gaplasha olsam!
Xudoga o‘z da’voimni bildirishni xohlayman.
4 Sizlar esa yolg‘onlar to‘qiysizlar,
Hech foyda keltirmaydigan tabibdaysizlar.
5 Qaniydi, jim o‘tirsangiz,
Ana o‘shanda dono ish qilgan bo‘lardingiz.
6 Endi mening arzimga quloq solinglar,
Shikoyatlarimga diqqat qilinglar.
7 Yolg‘on so‘zlaringiz, nohaq gaplaringiz bilan
Xudoni himoya qilyapmiz, deb o‘ylayapsizlarmi?!
8 Xudoning tarafini olib, Unga yon bosasizlarmi?!
Sizlar Xudoning da’vosini himoya qilasizmi?!
9 Qilayotganlaringizni U tekshirib ko‘rsa, yaxshi bo‘ladimi?
Yoki insonni aldaganday Uni ham aldaysizlarmi?!
10 Agar hatto xayolingizda ham tarafkashlik qilsangiz,
U sizlarga albatta tanbeh beradi.
11 Uning ulug‘vorligi yuragingizga vahima solmaydimi?!
Undan qo‘rqib, dahshatga tushmaysizmi?!
12 Sizlarning gapingiz kulday foydasiz,

Himoyangiz loy idishday kuchsizdir.

13 Endi jim bo‘linglar! Men gapiray.
Mayli, keyin nima bo‘lsa, bo‘lsin.
14 Jonimni xavf ostiga qo‘yib bo‘lsa ham,
Ichimdagilarni aytaman.
15 Mayli, U meni o‘ldirsin. Boshqa umidim yo‘q–ku!*
O‘z ishlarimni Uning oldida himoya qilaman.
16 Uning oldiga borishga jur’at qilganim mening najotim bo‘ladi,
Axir, betavfiq odam Xudoning oldiga bora olmaydi–ku!
17 Mening so‘zlarimga quloq solinglar,
Gaplarim quloqlaringizga kirsin.
18 Men o‘z arzimni tayyorlab qo‘ydim,
Bilaman, aybsizligim isbot bo‘ladi.
19 Xo‘sh, kim men bilan bahslashadi?
Agar meni aybdor deb topsangiz,
Ovozimni o‘chiraman–u, o‘laman.

Ayubning ibodati

20 Sendan ikki narsa so‘rayman, ey Xudo,
Shuni qilsang yuzimni Sendan yashirmayman.
21 Endi qiynoqlaringni bas qilgin,
Vahimang bilan meni qo‘rquvga solma.
22 Shundan keyin meni chaqir, javob beraman,
Yoki men gapiray, Sen esa menga javob ber.
23 Mening qancha aybu gunohlarim bor ekan?
Itoatsizliklarimni, gunohlarimni bildirgin menga.
24 Nima uchun mendan yuz o‘girasan,
Meni O‘z dushmaning deb hisoblaysan?
25 U yoqdan–bu yoqqa uchib yurgan bargni qo‘rqitasanmi,
Quruq somonni ta’qib qilasanmi?
26 Menga qarshi achchiq ayblar keltiryapsan,
Yoshligimdagi gunohlarimni eslatyapsan.
27 Oyoqlarimni kishanlab,
Yurgan yo‘llarimni poylaysan,
Hatto har bir qadamimni o‘lchaysan.
28 Evoh, inson chirik narsaday,
Kuya yegan kiyimday yo‘q bo‘lib ketadi.

14–BOB

1 Ayol zotidan tug‘ilgan insonning
Umri qisqa, hayoti qayg‘uga to‘la bo‘ladi.
2 U gul singari ochiladi–yu, yana so‘lib qoladi.
Soyaday tez o‘tib ketadi, ko‘pga chidamaydi.
3 Ey Xudo! Shunday insonga nazar tashlaysanmi?

Meni hukm qilish uchun O‘z oldingga olib kelasanmi?
4 Kim halolni harom ichidan chiqara oladi?!
Hech kim.
5 Sen inson hayotining kunlarini sanab qo‘ygansan,
Necha oy yashashini ham bilasan.
Inson Sen belgilagan chegaralardan o‘tolmaydi.
6 Uni tinch qo‘y, dam olsin.
Mardikorlarga o‘xshab, kunlik ishini tinchgina bitirsin.

7 Hatto daraxtning ham umidi bor,
Agar u kesib tashlansa, yana o‘saveradi,
Daraxtning novdalari o‘sishdan to‘xtamaydi.
8 Uning ildizlari qarib,
To‘nkasi chiriy boshlasa,
9 Hatto suvning hidini sezsa ham yana yashnashi mumkin.
Navnihol ko‘chatday yana novdalari ko‘karishi mumkin.
10 Lekin inson o‘lganda bor kuchidan ayriladi,
Oxirgi nafasini chiqaradi–yu, yo‘q bo‘lib ketadi!
11 Suv dengizdan bug‘lanib chiqib ketganday
Daryo qurib, yo‘q bo‘lib ketganday,
12 Inson ham yotadi–yu, qaytib turmaydi.
Osmon yo‘q bo‘lmaguncha, u uyg‘onmaydi.
O‘lim uyqusidan uni hech kim turg‘iza olmaydi.
13 Ey Xudo, qani endi, meni o‘liklar diyoriga* yuborsang,
G‘azabing bosilguncha meni yashirib qo‘ysang,
Men uchun bir vaqt tayinlab, keyin meni yodga olsang.
14 Inson o‘lsa, u yana tiriladimi?
Agar shunday bo‘lsa, ozod bo‘lgunimcha
Barcha qiyinchiliklarga chidab berardim.
15 Meni chaqirsang, Senga javob bergan bo‘lardim.
Menga — O‘z qo‘ling bilan yaratganga muntazir bo‘larding.
16 Shunda Sen qadamlarimni o‘lcharding–u,
Gunohlarimni hisobga olmasding.
17 Ayblarimni xurjunga solib, bog‘lab qo‘yganday bo‘larding.
Fosiqligimni o‘chirib, ustidan oqlab tashlaganday bo‘larding.

18 Ammo tog‘lar qulab, maydalanib ketadi,
Qoyalar o‘z joyidan suriladi,
19 Suv toshlarni yemiradi,
Toshqin suvlar yerni yuvib ketadi.
Xuddi shu singari, Sen ham
Insonning umidini yo‘qqa chiqarasan.
20 Sen insonni butunlay mag‘lub qilasan,
Inson olamdan o‘tib ketadi.
O‘lganda yuzini o‘zgartirib, jo‘natib yuborasan.

21 Farzandlari hurmatga sazovor bo‘lsalar ham,
Xo‘rlansalar ham u bilmaydi.
22 Inson faqat o‘z tanasidagi og‘riqni sezadi,
Faqat o‘zi uchun qayg‘uradi.”

15–BOB

Elifaz ikkinchi marta gapiradi: u Ayubni Xudodan qo‘rqmaslikda ayblaydi

1 Keyin Temonlik* Elifaz shunday dedi:

2 “Dono kishi shunday behuda so‘zlar bilan javob bermagan bo‘lardi!
Og‘zini quruq gaplar bilan to‘ldirmas edi!
3 Befoyda so‘zlar aytib bahslashmagan bo‘lardi!
Quruq gaplar aytmas edi!
4 Sen Xudodan qo‘rqmay qo‘yding!
Toat–ibodatga to‘sqinlik qilyapsan.
5 Gunohlaring senga gap o‘rgatyapti,
Xuddi ayyorlarday gapiryapsan.
6 Men emas, o‘z og‘zing seni hukm qilyapti,
O‘z lablaring senga qarshi guvohlik beryapti.

7 Nima, sen odamzodning to‘ng‘ichimisan?!
Qirlar yaratilmasdan oldin tug‘ilganmisan?!
8 Xudoning kengashida* qatnashganmisan?!
Nima, faqatgina o‘zingni dono deb bilasanmi?!
9 Xo‘sh, biz bilmagan nimani bilasan?
Biz tushunmaganlarni sen tushunasanmi?
10 Ha, oqsoqollar, keksalar,
Otangdan ham yoshi ulug‘roq bo‘lganlar biz tomonda.
11 Xudoning tasallisi senga kamlik qilyaptimi?!
Muloyimlik bilan aytgan so‘zi senga yetmayaptimi?!
12 Nima uchun yuragingning amriga qarab ish tutasan?
Nima uchun ko‘zlaringni chaqchaytirasan?
13 Nima uchun sen Xudo bilan teskarisan?
Nimaga og‘zingdan shunday so‘zlar chiqyapti?
14 Inson o‘zi nedirki, pok bo‘la olsa?!
Ayol zotidan tug‘ilgan inson qanday qilib solih bo‘la oladi?!
15 Xudo hatto O‘z farishtalariga ham ishonmaydi,
Hatto samo ham Uning nazarida pok emas.
16 Shunday ekan, qabih va buzuq inson qanchalik tuban,
Axir, inson yovuzlikni suvday ichib yuboradi–ku!

17 Quloq sol, men senga tushuntiraman,
Ko‘rganimni aytib beraman.
18 Senga donishmandlarning gaplarini aytaman.
Ular ajdodlaridan o‘rganib, yashirmasdan aytganlarini so‘zlab beraman.

19 Faqat o‘sha dono insonlarga yurt berilgan edi,
Ularning orasida begonalar yo‘q edi.

20 Fosiqlarning butun umri azob bilan o‘tadi,
Zo‘ravonlarga berilgan barcha yillar sanoqlidir.
21 Dahshatli tovushlar quloqlariga tinchlik bermaydi.
Farovonlik chog‘ida ham ularning ustiga bosqinchi bostirib keladi.
22 Fosiqlar zulmatdan qochib qutulishga umid qilmaydilar,
Ularning peshanasiga qilichdan o‘lish yozilgan.
23 Ular non izlab daydib yuradilar*,
Zulmat kuni yaqinligini biladilar.
24 Qo‘rquv va qayg‘u ularni dahshatga soladi,
Urushga tayyorlanayotgan shohday, vahimada yashaydilar.
25 Ular qo‘llarini Xudoga qarshi ko‘targani,
Qodir Xudoga bo‘ysunmaganlari uchun shunday bo‘ladi.
26 Mustahkam qalqonlarini ko‘tarib,
O‘jarlik bilan Unga qarshi chiqadilar.
27 Chunki ular semirib, yuzlari yiltirab ketgan,
Qorniyu bellarini yog‘ bog‘lab ketgan.
28 Ular vayrona shaharlarda yashaydilar.
Qulab tushay deb turgan,
Hech kim yashamaydigan uylarda turadilar.
29 Ular boyligicha qolavermaydilar, boyliklari abadiy emas.
Mol–dunyosi yer yuzidan yo‘q bo‘lib ketadi.
30 Ular zulmatdan qochib qutula olmaydilar.
Ha, ular shoxlari yongan daraxtga o‘xshaydilar.
Xudoning nafasi ularni uchirib yuboradi.
31 Behuda narsalarga umid bog‘lab, o‘zlarini aldamasinlar,
Ularning mukofoti o‘sha behuda narsalar bo‘ladi.
32 Vaqti–soati yetmay turib, ular to‘liq jazo oladilar,
Novdalari gullab–yashnamaydi.
33 Uzumlari pishmay turib uzib olingan tokday,
Gullari to‘kilib, meva tugmagan zaytun daraxtiday bo‘lib qoladilar.
34 Betavfiqlar to‘dasi biror avlod qoldirmay o‘tib ketadi,
Poraxo‘rlarning chodirlarini olov yondirib yuboradi.
35 Fosiqlar buzuqlikka homilador bo‘lib, yovuzlik tug‘adilar,
Yuraklarida faqat yolg‘on tug‘iladi.”

16–BOB

Ayubning beshinchi nutqi: u o‘zining aybsizligini ta’kidlaydi

1 Ayub shunday javob berdi:

2 “Men bunday narsalarni ko‘p eshitganman,
Qanday noshud yupatuvchisizlar–a!

3 Bu behuda gaplarning oxiri bormi o‘zi?!
Shunday gapirishga sizlarni nima undaydi?!
4 Agar sizlar mening o‘rnimda bo‘lganingizda edi,
Men ham sizlarday gapirsam bo‘lardi.
Boshimni chayqab,
Sizlarga qarshi chiroyli so‘zlar aytsam bo‘lardi.
5 Ammo men so‘zlarim bilan sizlarga dalda bergan bo‘lardim.
Gaplarim bilan dardingizni yengillashtirardim.

6 Hozir esa, gapirsam ham dardim yengillashmaydi,
Gapirmasam ham azoblarim kamaymaydi.
7 Ey Xudo, Sen meni ezib yubording,
Butun oilamni yo‘q qilding.
8 Yuzimni ajinlar bilan to‘ldirib tashlading.
Bular menga qarshi guvoh bo‘ladi.
Ozg‘inligim ham ko‘zga tashlanib,
Menga qarshi guvohlik beradi.
9 Xudo g‘azab bilan ortimdan quvib,
Meni ezib tashladi.
Tishlarini g‘ichirlatib,
Ko‘zlari bilan teshadi.
10 Meni ko‘rib, odamlarning og‘zilari ochilib qoldi,
Ular meni mazax qilib, yuzimga urdilar.
To‘dalashib, menga qarshi chiqish uchun yig‘ildilar.
11 Xudo meni betavfiqlar ixtiyoriga tashladi,
Fosiqlarning qo‘liga berib qo‘ydi.
12 Men tinchgina yashayotgan edim,
U meni parchalab tashladi,
Bo‘ynimdan ushlab, meni ezdi.
Keyin esa Xudo meni nishon qilib,
13 O‘z kamonlari bilan o‘rab oldi.
Rahm–shafqat qilmay,
O‘qlari* bilan meni ilma–teshik qilib tashladi.
Ichak–chovoqlarim yerga to‘kildi.
14 Xudo qayta–qayta menga hujum qildi,
Mening ustimga jangchiday bostirib keldi.
15 Qayg‘u–alamdan qanorga burkandim*,
Qanor xuddi terimga qo‘shib to‘qilganday bo‘lib qoldi,
G‘ururim poymol bo‘ldi.
16 Nolayu faryoddan yuzim qizarib,
Qovoqlarim qorayib ketgan.
17 Lekin qo‘llarim yovuzlikdan uzoq,
Ibodatlarim pokdir.

18 Ey tuproq, mening qonimni yashirma,

Mening faryodim yoʻqolib ketmasin.
19 Mana, hozir mening Guvohim samodadir,
Mening Himoyachim yuksakda oʻtiribdi.
20 Doʻstlarim meni mazax qilyapti*,
Men esa Xudo oldida koʻz yosh toʻkaman.
21 Qani endi birontasi
Oʻz yaqini uchun Xudoga iltijo qilganday,
Men uchun ham Xudoga yolvorsa.
22 Chunki men koʻp vaqt oʻtmay
Borsa kelmas joyga ketaman.

17–BOB

1 Ruhim tushgan, umrim oz qolgan,
Qabr meni kutib turibdi.
2 Mazax qiluvchilar atrofimni oʻrab olgan.
Adovatlarini oʻz koʻzlarim bilan koʻrib turibman.

3 Ey Xudo, Oʻzing meni kafillikka olgin.
Axir, yana kim bor meni qoʻllaydigan?
4 Sen doʻstlarimning ongini aql–zakovat uchun yopib qoʻygansan,
Shuning uchun ularning ustun boʻlishlariga yoʻl bermaysan.
5 Ular oʻz foydasini koʻzlab, doʻstlariga xiyonat qiladilar.
Shundaylarning farzandlari koʻr boʻlsin.

6 Xudo meni odamlar orasida kulgi qilib qoʻydi,
Ular yuzimga tupurishadi.
7 Qaygʻudan koʻzlarim xiralashgan,
A’zoi badanim zaiflashib, qoq suyak boʻlib qolgan.
8 Oʻzini pokdil deb bilganlar meni koʻrib ajablanyaptilar,
Ular meni ikkiyuzlamachi deb oʻylayaptilar.
Oʻzini aybsiz deb bilganlar* mendan gʻazablanyaptilar.
9 Ammo shunga qaramay, solih odam* oʻz yoʻlida yuraveradi,
Qoʻli pok boʻlgan kuchayib ketaveradi.
10 Qani endi sizlar kelinglar–chi?!
Orangizdan birorta dono insonni topa olarmikanman?!
11 Mana kunlarim oʻtib ketdi,
Rejalarim ham barbod boʻldi,
Koʻnglimdagi orzularim puchga chiqdi.
12 Doʻstlarim tunni kun, deyishadi,
Atrofi qop–qorongʻi,
Lekin ular, yorugʻlik yaqin, deb turib olishgan.
13 Xoʻsh, agar oʻliklar diyori* mening uyim boʻlsa,
Toʻshagimni zulmatda yozsam,
14 Qabrga, sen otamsan, desam,
Qurt–qumursqalarni, onamsiz, opa–singillarimsiz, desam,

15 Men umidli odam bo‘lamanmi?
Meni, umidi bor, deb kim aytadi?!
16 Nahotki o‘liklar diyorida umid bo‘lsa?!
Yo‘q, tuproqda yotganimda umid bo‘lmaydi.”

18–BOB

Bildad ikkinchi marta gapiradi: u Ayubni fosiqlar qatoriga qo‘shadi

1 Shunda Shuvaxlik* Bildad javob berdi:

2 “Qachongacha valdiraysan–a?!
Gapingni o‘ylab gapirgin, keyin suhbatlashamiz.
3 Nima, bizni mol deb o‘ylayapsanmi?
Yoki bizni go‘l deb bilyapsanmi?
4 Jahl bilan o‘zingni jarohatlayapsan.
Nima endi, seni deb yer yuzi huvullab qolishi kerakmi?!
Yoki qoyalar o‘rnidan qo‘zg‘alishi kerakmi?!

5 Fosiqlarning chirog‘i albatta o‘chadi,
Olovining uchquni yorug‘lik bermaydi.
6 Chodiridagi yorug‘lik zulmatga aylanadi,
Tepasida osilgan chirog‘i o‘chadi.
7 Sobit qadam fosiqlar endi qoqilib yuradi.
O‘z rejalari ularni oyog‘idan chaladi.
8 O‘z oyoqlari ularni tuzoqqa yetaklaydi,
O‘zlari chuqurlikka yiqilib tushadi.
9 Qopqon ularni tovonidan qisib qoladi,
To‘r ularni mahkam tutadi.
10 Yerda fosiqlarga ilmoq tashlangan,
Ularning yo‘liga tuzoq qo‘yilgan.
11 Har tomondan ularni vahima bosib,
Har qadamda ortidan quvib yuradi.
12 Ochlikdan ularning sillalari qurib qoladi*,
Kulfat ham ularning qoqilishini kutib turadi.
13 Kasallik ularning terisini kemirib bitiradi,
O‘lat ularning oyoq–qo‘llarini chiritib yuboradi.
14 Panohlari bo‘lgan chodirlaridan ularni sug‘urib olib,
O‘liklar diyori shohining oldiga olib kelishadi.
15 Fosiqlarning chodirlaridan hech narsa qolmaydi,
Ular yashagan joy oltingugurt bilan qoplanadi*.
16 Ularning ildizlari qurib qoladi,
Novdalari ham so‘lib qoladi.
17 Yer yuzidan ularning xotirasi o‘chib ketadi,
Ko‘chalarda ulardan nom–nishon ham qolmaydi.
18 Ular yorug‘likdan zulmatga haydaladilar,

Ha, bu dunyodan quvib chiqariladilar.
19 Xalqi orasida ulardan avlod–zurriyot qolmaydi,
Ular yashagan joylar kimsasiz bo‘lib qoladi.
20 Ularning taqdiridan g‘arbdagilar dahshatga tushadi,
Sharqdagilarni esa vahima bosadi.
21 Ha, yovuzlarning maskani shu ahvolga tushib qoladi,
Xudosizlarning joyi shunday bo‘lib qoladi.”

19–BOB

Ayubning oltinchi nutqi: Xaloskori uni himoya qilishiga ishonch bildiradi

1 Ayub shunday javob berdi:

2 “Qachongacha meni qiynaysizlar,
Gaplaringiz bilan meni ezasizlar?
3 Mana, meni o‘n marta haqoratladingiz!
Menga hamla qilaverishdan uyalmaysizlarmi?
4 Agar xato qilganim rost bo‘lsa,
Gunohim o‘zimning tashvishim.
5 Sizlar o‘zingizni mendan ustun qo‘yyapsiz.
Mana bu gunohingning dalili, deb
Sharmanda bo‘lganimni ko‘rsatyapsiz.
6 Shuni bilinglar, Xudoning O‘zi menga haqsizlik qildi,
To‘rlari bilan atrofimni o‘radi.
7 «O‘ldiryapti!» deb xitob qilsam ham,
Menga hech kim javob bermaydi.
Faryod qilaman, lekin adolat yo‘qdir.
8 Xudo yo‘limga g‘ov qo‘ygan, o‘tolmayman.
Yo‘llarimni zulmat bilan qoplagan.
9 U bor obro‘yimni to‘kkan,
Boshimdagi tojimni tortib olgan.
10 Menga har tomondan hujum qildi, tamom bo‘ldim,
Daraxtni sug‘urganday, umidimni sug‘urib tashladi.
11 Uning g‘azabi menga qarshi qaynaydi,
U meni O‘ziga dushman deb hisoblaydi.
12 Uning qo‘shinlari bostirib keladi.
Meni qamal qilish niyatida
Chodirim atrofida qarorgoh quradi.

13 Xudo qarindosh–urug‘imni mendan uzoqlashtirdi,
Tanishlarim mendan yuz o‘girdilar.
14 Qarindoshlarim meni tark etishdi.
Do‘stlarim meni unutishdi.
15 Uyimga kelgan mehmonlar ham,
Cho‘rilarim ham menga begonaday qarashadi.

Ularning nazarida bir musofirday bo‘lib qoldim.
16 Xizmatkorimni chaqirsam, u javob bermaydi.
Unga o‘zim yalinib borishim kerak.
17 Nafasim xotinimga jirkanch bo‘lib qolgan,
Qarindosh–urug‘im mendan nafratlanadi.
18 Hatto yosh bolalar ham mendan hazar qiladi.
Oyoqqa tursam, ular meni mazax qiladi.
19 Hamma yaqin do‘stlarim mendan hazar qiladi.
Yaxshi ko‘rganlarim ham mendan yuz o‘girdi.
20 Teriyu suyagimdan boshqa hech narsam qolmadi,
O‘lishimga bir baxa qoldi.
21 Ey do‘stlarim, menga rahm qilinglar,
Axir, meni Xudo urdi–ku!
22 Xudo meni quvg‘in qilganday,
Nima uchun sizlar ham meni quvg‘in qilyapsizlar?
Meni yeb bitirdingiz–ku! Hali ham to‘ymadingizmi?

23 Qani endi, aytgan so‘zlarim yozib qo‘yilsa!
Ular kitobga tushirilsa!
24 Temir qalamu qo‘rg‘oshin bilan*
Qoyaga abadiy o‘yib bitilsa!
25 Ammo men bilaman,
Mening Xaloskorim hayotdir,
Vaqti kelib*, U meni himoya qiladi*.
26 Terim irib ketgan bo‘lsa ham,
Mana shu tanamda Xudoni ko‘raman.
27 Men Uni o‘z ko‘zlarim bilan ko‘raman,
Ha, men ko‘raman, boshqa hech kim emas.
Yuragim orziqib ketyapti!
28 Agar sizlar: «Mana endi unga qarshi chiqamiz!
Axir, kulfatlarining ildizi o‘zida–ku», desangiz,
29 O‘zingiz jazodan qo‘rqing.
Xudo g‘azabi kelganda qilich bilan jazolaydi,
Shunda sizlar hukm borligini bilib olasizlar.”

20–BOB

Zo‘far ikkinchi marta gapiradi: fosiqlarning qismati haqida

1 Namaxlik* Zo‘far shunday dedi:

2 “Gaplaring meni bezovta qildi,
Endi gapirmasam bo‘lmaydi.
3 Tanbehlaring bilan meni haqoratlading,
Lekin endi ongim, javob ber, deb undayapti.
4 O‘tmishdan bilmaysanmi?!

Axir, insonlar yer yuziga joylashtirilgandan beri,
5 Fosiqlarning shodligi uzoqqa choʻzilmaydi–ku,
Betavfiqlarning quvonchi bir lahzalik–ku!
6 Takabburligi samoga yetsa ham,
Boshlari bulutlarga tegsa ham,
7 Oʻzlarining axlatiday butunlay yoʻq boʻlib ketadi.
Ularni oldin koʻrganlar: «Qani endi ular?» deb soʻraydilar.
8 Fosiqlar tushday oʻtib ketadilar, ularni topib boʻlmaydi.
Kechasi koʻringan sharpaday gʻoyib boʻladilar.
9 Ha, fosiqlarni koʻrganlar ularni boshqa koʻrmaydilar,
Makonlari endi ularni tanimaydi.
10 Fosiqlarning farzandlari kambagʻallardan muruvvat kutadi,
Oʻz qoʻllari bilan tortib olgan boyliklarini qaytarib beradi.
11 Fosiqlar yosh va kuchli edi,
Endi suyaklari tuproqda yotadi.

12 Fosiqlik ularning ogʻizlarida shirin tuyuldi,
Shuning uchun fosiqlikni
Tillarining tagiga solib, soʻrib oʻtiribdilar.
13 Fosiqlikni tashlagisi kelmay,
Ogʻzilarida ushlab tursalar ham,
14 Oʻsha yeganlari qorinlarida achchiq boʻladi,
Ilonlarning zahriga aylanadi.
15 Boyliklarni yutib, qaytib qusadilar,
Qorinlaridan boʻlsa ham,
Xudo qaytarib olib qoʻyadi.
16 Ular kobra ilonlarning zaharini soʻradilar,
Zaharli ilon ularni oʻldiradi.
17 Endi fosiqlar oqar daryolardan —
Sut va asal oqadigan irmoqlardan zavq olmaydilar.
18 Zahmat bilan topganlaridan bahramand boʻlmaydilar.
Savdo–sotiq qilib topganlarining gashtini surmaydilar.
19 Axir, fosiqlar kambagʻallarga zulm qilib,
Boʻlganicha boʻlsin, deb tashlab ketgandilar.
Oʻzlari qurmagan uylarni kambagʻallardan tortib olgandilar.

20 Ular nafs balosiga uchragan, hech qachon qoniqmaydilar.
Orzu–havas qilib yiqqan boyliklari ularni qutqarmaydi.
21 Ular hech narsa qoldirmay, yeb bitirgandi.
Shuning uchun farovonligi uzoqqa choʻzilmaydi.
22 Farovonlik davrida ham ular gʻam–tashvishga toʻladilar.
Ularning boshiga ofatu kulfatlar tushadi.
23 Fosiqlar qorinlarini toʻydirib boʻlganlarida,
Xudo ularga bor gʻazabini sochadi.
Ularning ustiga Oʻz zarbalarini yogʻdiradi.

24 Fosiqlar temir quroldan qochsalar,
Bronza nayza ularni teshib o‘tadi.
25 Nayza ularning tanalaridan sug‘urib olinadi,
Ha, yaltiroq nayza ularning jigarlaridan tortib chiqariladi,
Ularni vahima qamrab oladi.
26 Ularning xazinalari zulmatda yo‘q bo‘lib ketadi.
Inson yoqmagan olov ularni yutib yuboradi,
Olov fosiqlarning chodiriyu undagi bor narsasini yo‘q qiladi.
27 Samo ularning aybini ko‘rsatadi,
Yer ularga qarshi guvohlik beradi.
28 Xudoning g‘azabi kelgan kuni
Uyidagilarni sel oqizib ketadi.
29 Xudo fosiqlarga bergan ulush ana shulardir,
Xudoning ularga tayinlagan nasibasi mana shudir.”

21–BOB

Ayubning yettinchi nutqi: fosiqlarning farovonligi haqida

1 Ayub shunday deb javob berdi:

2 “So‘zlarimga yaxshilab quloq soling,
Mana shu sizlarning menga bergan tasallingiz bo‘ladi.
3 Sabr qiling, men ham gapiray,
Gapirib bo‘lganimdan keyin, mazax qilavering.
4 Men insonlarga emas, Xudoga arz qilyapman–ku.
Shuning uchun sabrim chidamayapti–da.
5 Mana, holimga qarang, dovdirab qolasiz,
Damingiz ichingizga tushib, hang–mang bo‘lasiz.
6 Boshimga tushgan kulfatlar haqida o‘ylasam, vahimaga tushaman,
Tanamni qaltiroq bosadi.
7 Nima uchun fosiqlarning umrlari uzilmay, davom etaveradi?
Nega ular keksa yoshga yetadilar?
Nega nufuzi oshib boraveradi?
8 Farzandlari o‘sib, o‘z o‘rnini topganini ko‘radi,
Nevaralarini ham ko‘rishga muyassar bo‘ladi.
9 Uylari xavf–xatarsiz bo‘ladi,
Xudoning tayog‘i ularning boshiga tushmaydi.
10 Buqalari hech bir qiyinchiliksiz ko‘payaveradi,
Sigirlari bolalaydi, hech qachon bolasi tushib qolmaydi.
11 Fosiqlarning bolalari qo‘zilarga o‘xshab sakraydilar,
Farzandlari o‘ynab–kulib yuraveradilar.
12 Doira va lira sadosiga qo‘shiq kuylaydilar,
Nay sadosiga o‘yin–kulgi qiladilar.
13 Umrlari farovonlikda o‘tadi,
O‘liklar diyoriga* tinchgina ketadilar.

14 Xudoga shunday deydilar: «Bizni tinch qo‘y!
Sening yo‘llaringni bilishni xohlamaymiz.
15 Qodir Xudo kim bo‘libdiki, Unga xizmat qilsak,
Unga iltijo qilsak, bizga nima foyda tegardi?!»
16 Ammo fosiqlarning farovonligi o‘z qo‘lining ishi emas–ku!
Fosiqlarning o‘y–xayollaridan men jirkanaman.

17 Fosiqlarning chirog‘i biron marta bo‘lsa ham o‘chdimi?
Boshiga tez–tez kulfat tushib turibdimi?
Xudo O‘z g‘azabida ularga qiynoq beryaptimi?
18 Qachon ular shamolda to‘zigan xashakday,
Bo‘ron uchirib ketgan somonday bo‘ladilar?
19 Sen: «Xudo insonlarning gunohlari uchun
Ularning farzandlarini jazolaydi», deysan.
Men esa gunohkorlarning o‘zi jazolansin, deyman.
Mana shu ularga saboq bo‘ladi.
20 Gunohkorlar o‘z ko‘zlari bilan halokatlarini ko‘rsinlar.
O‘zlari Qodir Xudoning g‘azabi sharobini ichsinlar.
21 Zotan, ular o‘lganlaridan keyin
Oilasiga nima bo‘lishini o‘ylamaydilar ham!

22 Kim Xudoga saboq bera oladi,
Axir, U hatto samoviy zotlarni hukm qiladi–ku!
23 Mana, bir odam to‘liq farovonlikda,
Tinch va xotirjam olamdan ko‘z yumadi.
24 Uning beli baquvvat,
Suyaklari ilikka to‘la.
25 Ikkinchi odam esa ruhi tushkun holda,
Hech qachon yaxshilik ko‘rmay o‘lib ketadi.
26 Ikkovi ham tuproqda birday yotadi,
Ularni qurtlar bosib ketadi.

27 Eh, do‘stlarim, niyatlaringizni bilaman,
Maqsadlaringiz ham menga ayon.
28 Sizlar: «Qani zolim amaldorning uyi?
Fosiqlarning chodiri qayerda?» deb so‘raysizlar.
29 Ko‘p joylarga borib kelganlardan so‘ranglar.
Ular aytganlarini inkor qila olmaysiz!
30 Kulfat kunida fosiqlar najot topishlarini,
Xudoning g‘azab kunida qutqarilishlarini ular aytadilar–ku!
31 Fosiqlarning qilmishlarini kim ularning yuziga soladi?
Qilmishlari uchun kim ularni jazolaydi?
32 Jasadlari qabrga olib borilganda,
Qabr boshiga soqchi qo‘yiladi.
33 Son–sanoqsiz odamlar ketlaridan borib,

Ularga aza tutadi.
Hatto tuproq ham ularning ustiga sekin tushadi.
34 Qanday qilib meni puch so‘zlaringiz bilan yupata olasiz?
Barcha bergan javoblaringiz yolg‘ondir!”

22–BOB

Elifaz uchinchi marta gapiradi: u Ayubni o‘ta gunohkorlikda ayblaydi

1 Temonlik* Elifaz shunday dedi:

2 “Inson Xudoga qanday foyda keltiradi?!
Dono inson U uchun biror foydali ish qila oladimi?!
3 Solih bo‘lsang bu Qodir Xudoga qanday zavq keltiradi?!
Yurgan yo‘llaring pok bo‘lsa, Unga qanday foyda?!
4 U senga xudojo‘yliging uchun tanbeh beradimi?!
Buning uchun seni hukm qiladimi?!
5 Axir, fosiqliging qanchalar og‘ir?!
Gunohingning cheki yo‘q–ku!
6 Yaqinlaringdan hech bir sababsiz garov olding,
Kambag‘allardan kiyimini yechib olib*, yalang‘och qoldirding.
7 Chanqaganlarga suv bermading.
Qorni ochlardan noningni qizg‘anding.
8 Ha, qudratlilar yurtga egalik qiladilar,
Obro‘lilar u yerda yashaydilar.
9 Bevalarni quruq qo‘l bilan orqaga qaytarding,
Yetimlarga yordam qo‘lini cho‘zmading.
10 Shuning uchun atrofing tuzoqlar bilan o‘ralgan.
To‘satdan seni vahima bosgan.
11 Atrofingni zulmat qamrab olgan,
Ko‘zlaring hech narsani ko‘rmayapti,
Suv toshqinlari seni ko‘mib ketgan.

12 Yuksakdagi baland yulduzlarga qara.
Ammo Xudo samo cho‘qqisida–ku!
13 Shunda ham sen: «Xudo nimani bilardi,
Zulmat orasidan U qanday hukm qila olardi», deysan.
14 «Quyuq bulutlar Uni yashirgan, U bizni ko‘rmaydi,
Xudo osmon gumbazi* uzra aylanib yuribdi–ku», deb aytasan.
15 Sen fosiqlar yurgan
Azaliy yo‘ldan yuraverasanmi?
16 Ular hayotdan bevaqt mahrum bo‘ldilar,
Umr poydevorlarini sel yuvib ketdi.
17 Fosiqlar Xudoga shunday dedilar:
«Bizni tinch qo‘ygin.
Ey Qodir Xudo, bizga nima qila olarding?»

18 Ammo ularga baraka berib, uylarini to‘ldirgan Xudo–ku!
Fosiqlarning o‘y–xayollaridan men jirkanaman.
19 Solihlar fosiqlarning ahvolini ko‘rib, xursand bo‘ladilar,
Aybsizlar fosiqlarni mazax qilib kuladilar.
20 Ular: «Dushmanlarimiz yo‘q qilindi,
Bitta qolmay olovda yonib ketdilar*», deb aytadilar.

21 Xudo bilan tortishaverma!
U bilan yarashgin,
Shunda farog‘atda yashaysan.
22 Xudoning og‘zidan chiqqan o‘gitlariga quloq tut,
So‘zlarini yuragingda saqla.
23 Qodir Xudoga yuz bursang, sog‘ligu boyliging qayta tiklanadi.
Chodiringni fosiqlikdan tozalasang,
24 Oltinni chang deb bilib,
Ofir tillasini daryoga otsang,
25 Qodir Xudoning O‘zi sening xazinang bo‘ladi.
U sening qimmatbaho kumushing bo‘ladi.
26 Shunda Qodir Xudodan zavq topasan,
Xudoga yuz burasan.
27 Sen Unga iltijo qilasan, U esa senga quloq tutadi.
Unga bergan va’dalaringni bajarasan.
28 Nima niyat qilsang, hammasi amalga oshadi,
Hayot so‘qmoqlaring nurga to‘ladi.
29 Agar sharmanda bo‘lgan odam uchun Xudoga iltijo qilsang,
Xudo o‘sha odamni sharmandalikdan qutqaradi.
30 Sening pok qo‘llaring tufayli
Hatto aybdorlar ham najot topadi.”

23–BOB

Ayubning sakkizinchi nutqi: u achchiq shikoyat qiladi

1 Shunda Ayub yana gapirdi:

2 “Bugun ham achchiq shikoyat qilaman*,
Oh–vohdan o‘zimni tuta olmayman.
3 Qaniydi, Xudoni qayerdan topishni bilsam,
Taxti oldiga borgan bo‘lardim!
4 Uning oldiga barcha arzlarimni yoyib,
O‘z da’volarimni aytgan bo‘lardim.
5 O‘shanda Uning javobini tinglagan bo‘lardim,
Uning menga aytganlarini tushungan bo‘lardim.
6 U buyuk qudrati bilan menga qarshi chiqarmidi?
Yo‘q, U menga quloq tutgan bo‘lardi.
7 Ha, solih inson Unga kelib, arzini ayta oladi.

O‘z Hakamim meni bir umrga oqlaydi.

8 Sharqqa borsam, Xudo yo‘qdir,
G‘arbga borib ham Uni topolmayman.
9 Shimolda biror ish qilsa, men Uni ko‘rolmayman,
Janub tomon burilsa ham Uni topolmayman.
10 U esa mening yurgan yo‘limni biladi,
U meni sinagandan keyin sof tilladay bo‘laman.
11 Men faqat Xudoning yo‘lidan yurdim,
Uning yo‘lini tutdim, chetga og‘madim.
12 U bergan amrlardan chetga chiqmadim,
Kundalik rizqimdan ham ko‘ra
Uning so‘zlarini qimmatli bildim*.
13 Xudo qarorida qat’iy turadi,
Kim Uning fikrini o‘zgartira oladi?!
U nima xohlasa, shuni qiladi.
14 Menga qarshi tuzgan rejalarini
U oxirigacha bajaradi,
Uning bunday rejalari hali ko‘p.
15 Shuning uchun Uning huzurida qo‘rquvga tushaman,
Bu haqda o‘ylasam, meni vahima bosadi.
16 Xudo meni jur’atsiz qilib qo‘ydi,
Qodir Xudo meni dahshatga solib qo‘ydi.
17 Ammo yuzimni qoplagan tim qorong‘ilik,
Zulmat mening ovozimni o‘chira olmadi.

24–BOB

Ayub: “Nima uchun fosiqlar jazolanmaydi?” deb so‘raydi

1 Nima uchun Qodir Xudo hukm vaqtini belgilamaydi?
Nima uchun Xudoni bilganlar bekorga Uni kutadilar?
2 Fosiqlar chegaralarni buzadilar*,
O‘g‘irlangan podalarni yaylovlarda boqadilar.
3 Yetimlarning eshaklarini haydab ketadilar.
Bevaning ho‘kizini kafillik sifatida olib qo‘yadilar.
4 Kambag‘allarni yo‘ldan chetga chiqarib tashlaydilar.
Qashshoqlarni yashirinishga majbur qiladilar.
5 Qashshoqlar yovvoyi eshaklarday cho‘lda ovqat izlashadi,
Ularning farzandlari uchun dashtdan boshqa yerda yegulik yo‘q.
6 Begonalarning dalalarida somon yig‘ishadi,
Fosiqlarning uzumzorlarida qolgan–qutganini terishadi.
7 Tunni kiyim–kechaksiz, yalang‘och o‘tkazadi,
Sovuqda ularning yopinadigan narsasi yo‘q.
8 Tog‘ yomg‘irlari ularni shalabbo qiladi,
Boshpanalari yo‘qligidan ular

Qoyaning oldida qaltiraydilar.

9 Fosiqlar bevaning farzandini
Onasining quchog‘idan yulib oladi,
Kambag‘alning chaqalog‘ini garovga oladi.
10 Kiyimlari yo‘qligidan kambag‘allar yalang‘och yurishadi.
Bug‘doy bog‘lamlarini ko‘tarib yursalar–da, qorinlari och qoladi.
11 Qator–qator zaytun daraxtlari orasida*
Zaytunni ezib moy chiqaradilar.
Uzum siqib sharob qiladilar,
Ammo chanqoqlari bosilmaydi.
12 Shaharda jon berayotganlarning nolalari eshitiladi,
Jarohatlanganlar madad so‘rab faryod qiladi.
Shunda ham Xudo hech kimni bu nohaqlik uchun javobgar qilmaydi.

13 Nurga qarshi bosh ko‘targanlar bor.
Ular nur yo‘lidan yurmaydilar,
Nur yo‘li olib boradigan joyga bormaydilar.
14 Qotil erta tongda turadi,
Kambag‘alu bechorani o‘ldiradi,
Kechasi esa o‘g‘rilik qiladi.
15 Zinokor kech bo‘lishini kutadi,
«O‘shanda meni hech kim ko‘rmaydi», deb o‘ylaydi.
Niqob bilan yuzini berkitadi.
16 O‘g‘rilar kechasi uylarni talab,
Kunduz kuni yashirinadi.
Ular nur nimaligini bilmaydi.
17 Barcha o‘g‘rilarning tongi zulmatdir.
Ha, zulmat dahshatlari ularning do‘stidir.

18 Ammo o‘sha fosiqlar daryo suvlari ustidagi ko‘pikday o‘tkinchidir.
Ularning yerlari la’natlangan,
Ularning uzumzorlariga hech kim qadam bosmaydi.
19 Issiq havo va qurg‘oqchilik qorni eritib yo‘q qilganday,
O‘liklar diyori* ham gunohkorni o‘z og‘ushiga oladi.
20 Qurtlar esa uni maza qilib kemiradi.
Gunohkorni hatto o‘z onasi unutadi,
Hech kim uni esga olmaydi.
Fosiqlar daraxtlarday sindirib tashlanadi.

21 Fosiqlar farzandsiz ayolga zulm o‘tkazadi,
Bevalarga mehr–shafqat ko‘rsatmaydi.
22 Ammo Xudo O‘z qudrati bilan kuchlilarni halok qiladi.
Ular baland ko‘tarilishi mumkin,
Ammo ularning hayoti uchun kafolat yo‘q.
23 Ular osoyishta yashashlariga Xudo yo‘l qo‘yadi,

Ammo O‘zi ularning yo‘llarini doim kuzatib turadi.
24 Hozircha ular buyuk bo‘lsa ham, keyinroq yo‘q bo‘ladi.
Ular yerga uriladi, xuddi boshqalarday o‘lib ketadi.
Don boshoqlariday qurib qoladi.
25 Qani, kim gaplarimni yolg‘on, deb ayta oladi?
Kim mening gaplarimni puchga chiqara biladi?”

25–BOB

Bildad uchinchi marta gapiradi: inson zoti solih bo‘la olmasligi haqida

1 Shunda Shuvaxlik* Bildad dedi:

2 “Xudo haybatli hukmrondir!
Samolarda U tinchlik o‘rnatadi.
3 Uning lashkarlarini kim sanay oladi?!
Axir, Uning nuri butun yer yuzini yoritadi–ku!
4 Shunday ekan, inson zoti qanday qilib
Xudo oldida solihlikka da’vo qila oladi?!
Ayoldan tug‘ilganlar qanday qilib pok bo‘la oladi?!
5 Xudoning nazarida hatto oy ham yorug‘mas,
Yulduzlar ham pok emas.
6 Shunday ekan, inson kim bo‘libdi?!
Axir, u bir qurt–ku,
Odamzod bir pashshaday–ku!”

26–BOB

Ayubning to‘qqizinchi nutqi: Xudoning beqiyos buyukligi haqida

1 Ayub shunday deb javob berdi:

2 “Ojizga bergan yordaming shumi?
Kuchsizga shunday madad kerakmi?!
3 Aqlsizga biram o‘rgatib qo‘yding–a!
Bergan maslahatlaring biram ma’noliki!
4 Kim o‘rgatdi o‘zi senga bu dono gaplarni?!
Sen orqali kimning ruhi gapirgan o‘zi?!

5 Suvlar ostidagi o‘liklar diyorida*
Marhumlarning ruhi qaltiraydi.
6 Xudoning oldida o‘liklar diyori* ochiqdir,
Halokat diyorining* ham yopinchig‘i yo‘q.
7 Xudo bo‘shliq ustiga samoni yoydi,
Yerni esa bo‘shliqqa osib qo‘ydi.
8 Xudo bulutlarni yomg‘ir suviga to‘ldiradi,
Bulutlar esa suvning og‘irligidan yirtilib ketmaydi.
9 Xudo to‘lin oyning yuzini* yashirib,

Bulutlar bilan o‘rab qo‘yadi.
10 Xudo ufqni bepoyon ummon uzra yoyib,
Yorug‘lik va qorong‘ilik orasiga chegara qo‘ydi.
11 Xudo osmonning ustunlariga* do‘q qilsa,
Ular qo‘rquvdan qaltirab tebranadi.
12 Xudo O‘z qudrati bilan dengizni mag‘lub qildi*,
O‘z zakovati bilan maxluq Rahobni* halok qildi.
13 O‘z nafasi bilan bulutlarni haydab,
Moviy osmonni ochdi.
Uning qudrati qochayotgan ilonni* ezib tashladi.
14 Bular Xudo qilgan ishlarning kichik bir parchasidir,
Xuddi pichirlab aytilgan gapga o‘xshaydi!
Shunday ekan, agar Uning qudrati
Momoqaldiroqday gumburlasa, kim tushuna oladi?”

27–BOB

Ayubning so‘nggi nutqi: o‘zini nohaqlikdan saqlashi haqida

1 Ayub yana gap boshlab shunday dedi:

2 “Menga adolat qilmay,
Qalbimni yaralagan Qodir Xudo shohid!
3 Tanamda Xudo ato qilgan jon bor ekan,
So‘nggi nafasimgacha,
4 Og‘zimdan fisqu fasod eshitilmas,
Tilimdan yolg‘on so‘zlar chiqmas.
5 Hech qachon sizlarni haq deb tan olmayman,
O‘lgunimcha aybsiz ekanligimni rad qilmayman.
6 Ikkilanmay o‘zim haqligimni aytaveraman,
Hayot ekanman, vijdonim toza mening.

7 Dushmanim fosiqlarday jazo olsin,
Raqiblarim yovuzlarday jazolansin.
8 Xudosiz odam hayotdan mahrum bo‘lganda,
Unda qanday umid qoladi?
Xudo uni yo‘q qilganda umidi bo‘ladimi?
9 Xudosizlarning boshiga kulfat tushganda,
Xudo ularning faryodiga quloq tutarmikin?
10 Axir, ular Qodir Xudodan zavq topmaydilar–ku!
Ular har doim ham Xudoga iltijo qilmaydilar–ku!
11 Xudoning qudrati haqida sizlarga o‘rgataman.
Qodir Xudoning yo‘llarini sizlardan yashirmayman.
12 Axir, o‘zingiz bularning hammasini ko‘rgansiz–ku!
Shunda ham bekorchi gaplarni qo‘ymaysiz.

13 Fosiqlarning taqdiri quyidagichadir,

Qodir Xudo zolimlarning boshiga solgani mana shudir:
14 Ularning farzandlari koʻpaysa ham,
Baribir urushda halok boʻladi.
Zurriyoti hech qachon nonga toʻymaydi.
15 Tirik qolganlarini oʻlat nobud qiladi,
Bevalari esa aza ham tutolmaydi*.
16 Kumushlari changday koʻp boʻlsa ham,
Kiyim–kechaklari uyum–uyum boʻlsa ham,
17 Oʻsha kiyimlarni solihlar kiyadi,
Kumushlarini esa aybsizlar boʻlib oladi.
18 Fosiqlarning uylari qush iniday* moʻrt boʻladi,
Dala qorovullarining kapalari singari boʻladi.
19 Fosiqlar kechqurun yostiqqa bosh qoʻyganda boy boʻlsa,
Koʻzlarini ochib qaraganda, bor boyliklari yoʻqolib ketgan boʻladi.
20 Vahima ularni suv toshqiniday bosadi,
Tunda boʻronlar ularni uchirib ketadi.
21 Sharq shamoli ularni olib ketadi,
Fosiqlarni oʻz joylaridan supurib tashlaydi.
22 Bu shamol shafqatsizlarcha ularga tashlanadi,
Fosiqlar shamolning kuchidan qochishga urinadi.
23 Shamol ularning ustidan kuladi,
Hushtak chalib, ularni dahshatga soladi.

28–BOB

Donolik

1 Mana, kumush qazib olinadigan konlar bor,
Tilla tozalanadigan joylar ham bor.
2 Temirni yerdan qazib olishadi,
Toshlarni eritib, mis ajratib olishadi.
3 Inson qorongʻi konlarga chiroq bilan kiradi,
Hatto yer ostining eng chet joylarini ham qaziydi.
Yerning qop–qorongʻi joylarigacha borib,
Temir va mis qidiradi.
4 U odamzod yashaydigan joylardan uzoqda,
Inson qadam bosmaydigan yerlarda konlar qaziydi.
Odamzoddan uzoq joylarda arqonlarga osilib, chuqurlarga tushadi.
5 Mana, donu non yerdan unib chiqadi,
Ammo yer osti esa yondirilganday algʻov–dalgʻov boʻlib yotibdi.
6 Yerdagi toshlardan zangori yoqutlar chiqadi,
Tuprogʻida tilla bor.

7 Hech bir quzgʻun konlarning yashirin soʻqmoqlarini bilmaydi,
Hech bir burgutning koʻzlari u joylarni koʻrmagan.
8 Yovvoyi hayvonlar u yerlarga oyoq bosmagan,

Sherlar ham u yerlardan yurmagan.

9 Inson qoyalarni oʻyadi,
Togʻlarni tag–tugi bilan qoʻporib tashlaydi.
10 Qoyalar orasidan yoʻllar ochadi,
Inson koʻzlari hamma bebaho xazinalarni koʻradi.
11 Inson daryolarning manbaini topadi*,
Yashirin xazinalarni yorugʻlikka olib chiqadi.

12 Ammo donolikni qayerdan topsa boʻladi?!
Idrokning manbai qayerda ekan?!
13 Odamzod donolikning qayerda ekanligini* bilmaydi,
Chunki yorugʻ yer yuzida donolik topilmaydi.
14 Tubsiz suvlar, donolik bizda emas, deydilar,
Dengiz ham, mening ichimda u yoʻq, deb aytar.
15 Donolikni tillaga sotib olib boʻlmaydi,
Uning narxini kumush bilan oʻlchab boʻlmaydi.
16 Donolik Ofir tillasiyu aqiq toshlar,
Zangori yoqutlar bilan ham sotib olinmaydi.
17 Tilla ham, billur ham donolikka teng kelmaydi,
Donolikni toza tilla taqinchoqlarga almashtirib boʻlmaydi.
18 Donolikning qadri gavhardan ham balanddir,
Marjon va javohirlar uning oldida qadrsizdir.
19 Habashistonning* javohiri ham unga teng kelolmaydi,
Eng sof tilla bilan ham donolikni sotib olib boʻlmaydi.

20 Shunday ekan, donolik qayerdan kelib chiqadi?
Idrokning manbai qayerda?
21 U barcha jonzotlarning koʻzlaridan yashirilgan,
Hatto osmondagi qushlardan ham berkitilgan.
22 Hatto Halokat* va Oʻlim* ham,
Biz donolik haqida faqat eshitganmiz, deb aytadi.

23 Donolikka olib boradigan yoʻlni Xudo biladi,
Donolikning maskanini faqatgina U biladi.
24 Zotan, Xudo yerning toʻrt tomonini ham koʻrib turadi,
Falak ostidagi hamma narsani kuzatib turadi.
25 Xudo shamolga kuch bergan,
Dengizning hajmini belgilagan.
26 Yomgʻirning qayerga yogʻishini U koʻrsatib bergan,
Chaqmoq uchun yoʻllarni belgilagan.
27 Oʻshanda Xudo donolikka qaradi–da,
Donolikning qadrini belgiladi.
Uni tekshirib koʻrib, barqaror qildi.
28 Xudo odamzodga shunday dedi:
«Men, Rabbingizdan qoʻrqish donolikdir,

Fosiqlikdan yuz o‘girish idrokdandir.»”

29–BOB

Ayub ilgari Xudo unga bergan baraka haqida gapiradi

1 Ayub gapida davom etdi:

2 “Qani endi, Xudo menga
G‘amxo‘rlik qilgan paytlari qaytib kelsa edi.
3 O‘sha paytlarda Xudo O‘z chirog‘i bilan yo‘limni yoritardi,
Uning nuri bilan zulmatdan o‘tar edim.
4 Kuch–quvvatga to‘lgan kezlarimda
Xudo bilan bo‘lgan do‘stligim chodirimni to‘ldirib turardi.
5 Qodir Xudo men bilan edi,
Farzandlarim ham atrofimda yurardi.
6 Uyimda qaymoq oshib–toshib yotardi,
Zaytunzorlarimdan moy ariq bo‘lib oqardi.
7 Shahar darvozasi oldida o‘tirganimda,
Yo‘lboshchilar orasidan joy olganimda,
8 Yoshlar meni ko‘rib, yo‘l berardi,
Hatto keksalar ham o‘rnidan turardi.
9 Oqsoqollar ham gapidan to‘xtardi,
Dami ichiga tushib ketardi.
10 Boshliqlarning ham ovozi tinardi,
Tillari tanglayiga yopishib qolardi.
11 Gaplarimni eshitganlar meni maqtardi,
Ko‘rganlar men haqimda yaxshi gapirardi,
12 Axir, men nola qilgan yo‘qsillarga yordam berardim,
Suyanchig‘i yo‘q yetimlarni chetda qoldirmas edim.
13 O‘limdan qutqarilgan bu odamlar meni duo qilardilar,
Yordamim bilan bevalarning qalbini quvonchga to‘ldirardim.
14 Solihlikka kiyim kabi o‘rangandim,
Odillikni sallam va to‘nimday kiyib yurardim.
15 Ko‘rlarga ko‘z bo‘ldim,
Cho‘loqlarga oyoq bo‘ldim.
16 Faqirlarga ota bo‘ldim,
Musofirlarning arzlarini eshitib, himoya qildim.
17 Zolimlarning tishlarini sindirdim,
Ularning og‘zidan o‘ljasini tortib oldim.
18 Men shunday deb o‘ylardim:
«Uzoq umr ko‘rib, o‘z uyimda hayotdan ko‘z yumaman.
19 Axir, men ildizlari suvga yetgan,
Shoxlarida tun bo‘yi shabnam turadigan daraxtdayman.
20 Doimo obro‘yim baland bo‘laveradi,
Kuchim qayta–qayta yangilanaveradi.»

21 Hamma sukut saqlab, menga quloq solardi,
Bizga qanday maslahat berarkan, deb kutardi.
22 Mening so‘zlarimdan keyin hech kim gap qo‘shmasdi,
So‘zlarim ularning ustiga shabnamday ohista tushar edi.
23 Ular yomg‘ir kutganday meni kutishardi,
So‘zlarim bahor yomg‘iri singari ularga singib ketardi.
24 Ularga kulib qarasam, ko‘zlariga ishonishmasdi,
Marhamat qilishimni umid bilan kutishardi.
25 Ularga bosh bo‘lib, yo‘l–yo‘riq ko‘rsatardim,
Lashkarlari orasidagi shohday yashar edim,
Ular qayg‘uga tushganlarida tasalli berardim.

30–BOB

Ayub o‘z dardi haqida gapiradi

1 Endi esa o‘zimdan yosh bo‘lganlar ustimdan kuladi,
Ularning otalari qo‘riqchi itlarim orasida bo‘lishga ham arzimaydi.
2 Ulardan menga nima foyda?!
Axir, ular kuch–quvvatdan qolgan–ku!
3 Ular ochligu muhtojlikdan ozib–to‘zib ketgan,
Tun bo‘yi dashtu biyobonda daydib yuradi.
4 Cho‘l butalari orasida achchiq o‘tlar teradi,
Yulg‘un butasining ildizlari ularga yemish bo‘ladi.
5 Ular odamlar orasidan haydalgan.
O‘g‘rilarga baqirganday ularning orqasidan baqiradilar.
6 Ular quruq soyliklaru chuqurlarda,
Qoyalar orasida yashashga majburdirlar.
7 Changalzorlarda hayvonlar singari bo‘kiradi,
Qichitqi o‘tlar orasida g‘ujanak bo‘lib o‘tiradi.
8 Eng past, yaramas bu to‘dani
Xivchinlar bilan yurtdan haydashgan.

9 Mana endi o‘shalar mazax qilib,
Men haqimda qo‘shiqlar kuylaydi,
Men ularga kulgi bo‘lib qoldim.
10 Ular mendan nafratlanib, yaqinimga ham kelmaydi,
Hatto yuzimga tupurishdan ham toymaydi.
11 Xudo kuchimni kesdi, meni yerga urdi.
Shuning uchun o‘sha yaramaslar ham
Mening oldimda o‘zlarini jilovlay olmaydigan bo‘ldilar.
12 O‘sha qalang‘i–qasang‘ilar
Menga qarshi chiqib, yerga yiqitadilar,
Meni o‘ldirmoqchi bo‘lib, hujum qiladilar.
13 Yo‘llarimni to‘sib,

Boshimga tushadigan kulfatni tezlatadilar,
Ularni to‘xtatadigan hech kim yo‘q*.
14 Meni mazax qiluvchilar har tomonlama hujum qiladilar,
To‘fonday ustimga yopiriladilar.
15 Meni qo‘rquv bosgan,
Obro‘yim shamol uchirgandek ketdi,
Farovonligim bulut kabi o‘tib ketdi.

16 Endi yuragim ezilib ketyapti,
Har kuni men azob–uqubat tortaman.
17 Tun bo‘yi suyaklarim zirqirab og‘riydi,
Meni dard qiynab, hech tinchlik bermaydi.
18 Xudo shaxt bilan kiyimimdan ushladi,
Ko‘ylagimning yoqasidan tutdi.
19 U meni loyga bulg‘adi,
Changu tuproqchalik qadrim yo‘q.
20 Ey Xudoyim, Senga iltijo qilaman,
Ammo Sen menga javob bermaysan.
Sening oldingda turibman,
Sen esa qarab turaverasan.
21 Menga nisbatan shafqatsiz bo‘lib qolding,
O‘z qudrating bilan meni quvg‘in qilyapsan.
22 Quyun bilan meni ko‘tarib,
Bo‘ron orasida u yoqdan–bu yoqqa otasan.
23 Bilaman, insonning qismati bo‘lgan o‘limga
Meni ham olib borasan.

24 Boshiga kulfat tushgan muhtoj odam nola qilsa,
Hech kim unga qo‘l ko‘tarmaydi–ku, axir.
25 Men boshiga kulfat tushganlar uchun qayg‘urdim–ku!
Muhtojlarni ko‘rib, yuragim achidi–ku!
26 Ammo yaxshilik kutganimda yovuzlik keldi,
Yorug‘likka umid qilsam, zulmat tushdi.
27 Qalbim bezovtalangan, tinim bilmaydi,
Og‘ir kunlar boshimga tushgan.
28 Quyosh nuri bo‘lmagan bir zulmatda yuribman,
Jamoa oldida madad so‘rab, faryod qilaman.
29 Men chiyabo‘rining do‘stiday,
Tuyaqushning ukasiday bo‘lib qoldim.
30 Terim qorayib ketgan,
Tanam isitmadan yonyapti.
31 Nayim sadosi azadorlarga jo‘r bo‘ladi,
Liram qayg‘uli nola qiladi.

31–BOB

Ayub aybsizligini oxirgi marta ta’kidlaydi

1 Men: «Ayol–qizlarga shahvat bilan qaramayman», deb
Ko‘zlarim bilan ahd tuzgan edim.

2 Xo‘sh, Xudo menga bergan nasiba nima bo‘ldi?!
Qodir Xudo men uchun nima buyurgan?!
3 Adolatsizlarning boshiga ofat,
Badkirdorlarning boshiga kulfat tushadi–ku.
4 Xudo hamma yo‘llarimni ko‘radi,
Bosgan qadamimni kuzatib turadi.

5 Agar yolg‘on gapirgan bo‘lsam,
Tilim yolg‘on–yashiqqa to‘la bo‘lsa,
6 Mayli, Xudo meni adolat tarozisida tortib ko‘rsin,
Shunda U pokligimni bilib oladi.
7 Agar to‘g‘ri yo‘ldan og‘ib ketgan bo‘lsam,
Nafsim meni yo‘ldan urib,
Qo‘llarimni bulg‘agan bo‘lsam,
8 Mayli, men ekay, hosili birovga nasib bo‘lsin,
Dalamda ungan ekinlar sug‘urib tashlansin.

9 Biror ayol meni yo‘ldan urgan bo‘lsa,
Shahvat bilan qo‘shnimni poylagan bo‘lsam,
10 Mayli, xotinim boshqalarning bug‘doyini yanchsin,
Begona erkaklar uning oldiga kirsin.
11 Axir, shahvat buzuqlik–ku!
Bu gunoh albatta hukm qilinadi.
12 Halokat diyorigacha* yetib boradigan olovdaydir u,
Bor–budimni tag–tomiri bilan yeb bitiradi.

13 Qullarim, cho‘rilarim men haqimda shikoyat qilganda,
Ularga nisbatan doim adolatli bo‘lganman.
14 Aks holda, Xudo hukmga turganda men nima qilardim?
Xudo meni so‘roq qilganda nima degan bo‘lardim?
15 Meni yaratgan ularni ham yaratgan–ku!
Onamizning qornida barchamizga shakl bergan — Xudo–ku!

16 Muhtojlar madad so‘raganda, qaytarib yubormadim,
Bevalarning umidini puchga chiqarmadim.
17 Ovqatimni bir o‘zim yemadim,
Yetimlar bilan bo‘lishdim.
18 Yoshligimdan yetimlarga ota bo‘ldim,
Umrim bo‘yi bevalarga g‘amxo‘rlik qildim.
19-20 Ko‘zim tushgan yalang‘och bechoralar

Qo‘ylarimdan qirqib olingan junlar bilan isindi.
Ust–boshi bo‘lmagan faqirlarga mehr ko‘rsatdim,
Shuning uchun ular meni duo qildi.
21 Agar qozixonada so‘zim o‘tishini bilib turib,
Yetimlarga qarshi qo‘l ko‘targan bo‘lsam,
22 Qo‘llarim sinib qolsin,
Qo‘lim yelkamdan uzilib tushsin.
23 Men Xudodan keladigan kulfatdan qo‘rqardim,
Xudoning ulug‘vorligini bila turib, bunday ish qila olmasdim.

24 Tillaga ishondimmi?
Toza tillaga umid bog‘ladimmi?
25 Boyligim ko‘pligidan yoki mol–mulkim bilan maqtandimmi?
26 Osmondagi yorug‘ quyoshga qarab,
Go‘zal oyning suzishini kuzatib,
27 Yuragim vasvasaga tushdimi?
Ularga sig‘indimmi?
28 Agar shunday qilgan bo‘lsam, bu ham hukmga loyiq gunoh bo‘lar edi.
Axir, bu ish bilan yuksakdagi Xudoga sadoqatsizlik ko‘rsatgan bo‘lardim–da!

29 Hatto g‘animlarimga kelgan kulfatdan suyunmadim,
Boshiga ofat tushganda quvonmadim.
30 Ularni qarg‘ashdan o‘zimni tiydim,
Boshimga gunoh orttirmadim.
31 Xizmatkorlarim shunday derdilar:
«Ayubning chodirida go‘sht yeb, to‘ymaganlar bormi?»
32 Hech bir musofir ko‘chada tunamas edi,
Chunki eshigim doimo sayyohlarga ochiq edi.
33 Boshqalarga o‘xshab, gunohlarimni yashirmadim,
Ayblarimni yuragimda saqlamadim.
34 Olomondan cho‘chiydiganlaru
Odamlarning gapidan qo‘rqadiganlar kabi
Ko‘chaga chiqmay, jim o‘tiravermadim.

35 Koshki endi menga quloq soladigan birortasi bo‘lsa!
Mana arzimga o‘zim qo‘l qo‘yyapman.
Endi Qodir Xudo O‘zi javob bersin.
Qani endi, dushmanim ayblarimni yozib bersa,
36 Men faxrlanib, ularni yelkamga osgan bo‘lardim,
Toj qilib kiyib yurgan bo‘lardim.
37 Har bir bosgan qadamimga javob bergan bo‘lardim,
Mag‘rur bir shahzoda kabi Xudoning oldiga borgan bo‘lardim.
38 Agar yerlarim menga qarshi faryod qilsa,
Yerlarim egatlari ko‘z yoshga to‘la bo‘lsa,
39 Bahosini to‘lamay, hosilini yegan bo‘lsam,

Dehqonlarning o‘limiga sababchi bo‘lgan bo‘lsam,
40 Bug‘doy o‘rniga tikanlar o‘ssin,
Arpa o‘rniga gazanda o‘tlar chiqsin.”

Shunday qilib, Ayubning gaplari tugadi.

32–BOB

Elixu Ayubning do‘stlariga javob beradi

1 Shunday qilib, o‘sha uch kishi Ayubga boshqa gapirmadilar, chunki Ayub o‘z nazarida solih edi. 2 Ammo Buz avlodining* Ram xonadonidan bo‘lgan Boraxiyol o‘g‘li Elixuning jahli chiqdi. Ayub o‘zini oqlab, Xudoni ayblayotgani uchun undan qattiq g‘azablandi. 3 U Ayubning uchala o‘rtog‘idan ham juda qattiq achchiqlandi, chunki ular Ayubning gapiga javob topib bera olmadilar. Natijada Xudo aybdorday bo‘lib qoldi*.
4 Elixu gapirish uchun o‘z navbatini kutib turardi, chunki boshqalarning yoshi unikidan ulug‘roq edi. 5 Lekin ularning boshqa gapi yo‘qligini ko‘rib, Elixuning jahli chiqdi.
6 Shunday qilib, Buz avlodidan bo‘lgan Boraxiyol o‘g‘li Elixu o‘z gapini boshladi:

“Men yoshman,
Sizlarning esa yoshingiz ulug‘.
Shuning uchun uyalib,
Fikrlarimni aytishga qo‘rqdim.
7 Yoshi ulug‘lar gapirsin,
Ko‘pni ko‘rganlar aql o‘rgatsin, dedim.
8-9 Ammo faqatgina yoshi ulug‘lar dono bo‘lmaydi,
Nima to‘g‘riligini faqat keksalar tushunavermaydi.
Axir, insonga uning ichidagi ruh —
Qodir Xudoning nafasi aql–idrok beradi–ku!
10 Shuning uchun menga quloq soling,
Men ham o‘z fikrimni bayon qilay.

11 Sizlar gapirganda jim turdim,
Dono gaplaringizga quloq soldim.
Gap qidirganingizda ham kutib turdim.
12 Sizlarga diqqat bilan quloq soldim,
Lekin hech biringiz Ayubning aybini isbotlay olmadingiz.
Uning gaplariga javob bera olmadingiz.
13 Sizlar: «Eng dono yo‘lni topdik,
Ayubni inson emas, Xudoning O‘zi mag‘lub qilsin», deya ko‘rmanglar.
14 Ayub gaplarini menga qarata aytgani yo‘q.
Shunday bo‘lganda ham,
Men hech qachon sizlarga o‘xshab javob bermasdim.

15 Ey Ayub! Bu uchala o‘rtog‘ingiz esankirab qoldi,
Gap topolmay o‘tiribdilar.
Aytadigan bironta so‘zi yo‘q.

16 Endi ularning aytadigan gapi bo‘lmasa,
Men kutib o‘tiraveraymi?!
17 Men ham javob beraman,
O‘z fikrimni bildiraman.
18 Ichimda so‘zlar toshib ketyapti,
Ruhim meni da’vat qilyapti.
19 Qalbim ochilmagan sharob kabi jo‘shmoqda,
Yangi sharob quyilgan mesh kabi yorilib ketay, deydi*.
20 Gapirib, ozgina yozilay.
Og‘iz ochib, javob beray.
21 Men hech kimga tarafkashlik qilmayman,
Hech bir insonga xushomad qilmayman.
22 Agar xushomadgo‘ylikka usta bo‘lsam,
Yaratuvchim meni yo‘q qilgan bo‘lar edi.

33–BOB

Elixu Ayubga qarshi gapiradi

1 Ey Ayub, endi mening so‘zlarimni eshiting,
Hamma gaplarimga quloq soling.
2 Men hozir gapirishga tayyorman.
So‘zlarim tilimda tizilib turibdi.
3 So‘zlarim pok ko‘nglimdan chiqadi,
Chin dildan gapiraman.
4 Meni Xudoning Ruhi yaratgan,
Qodir Xudoning nafasi menga hayot berib turibdi.
5 Agar qo‘lingizdan kelsa, menga javob bering–chi,
O‘zingizni himoya qilib ko‘ring–chi!
6 Xudoning oldida siz ham, men ham birmiz,
Men ham tuproqdan yaralganman.
7 Mendan qo‘rqmasangiz ham bo‘ladi,
Sizga hech zulm o‘tkazmayman.

8 Gaplaringizni o‘z qulog‘im bilan eshitdim,
Quyidagi so‘zlarni oldimda aytgansiz:
9 «Men pokman, aybsizman,
Top–tozaman, menda hech bir ayb yo‘q.
10 Xudo esa menga qarshi chiqishga bahona qidiryapti,
Meni O‘z dushmanlari qatoriga qo‘shib qo‘ydi.
11 Oyoqlarimni zanjirband qildi,
Yurgan yo‘limni kuzatib turadi.»

12 Ayub, mana shu borada siz nohaqsiz.
Men sizga shuni aytay:
Xudo butun odamzoddan ulug‘roqdir.

13 Shunday ekan, nimaga U bilan da’volashyapsiz?
Nima uchun, Xudo menga javob bermaydi, deysiz?
14 Xudo qayta–qayta gapiradi.
Shunda ham odamlar tushunmaydi.
15 Odamlar chuqur uyquga ketganda,
O‘rinlarida uxlab yotganda,
Tushlar, tungi vahiylar orqali
16 Xudo ularning quloqlariga gapiradi,
O‘z ogohlantirishlari bilan ularni qo‘rqitadi.
17 Inson gunohlaridan qaytsin,
Odamzod takabbur bo‘lmasin deb, bu so‘zlarni aytadi.
18 O‘sha ogohlantirishlar odamlarni qabrdan saqlaydi,
O‘lim daryosidan* qutqaradi.
19 Xudo insonlarga dardu og‘riq berib,
Odamlarning suyaklarini zirqiratib, tarbiyalaydi.
20 Shunda ular nonga ham qaray olmaydigan bo‘lib qoladi.
Hatto eng shirin ovqatlar ham ko‘nglini aynitadi.
21 Ular ozib–to‘zib ketadi, faqat terisi qoladi.
Oldin ko‘rinmagan suyaklari endi turtib chiqadi.
22 Ana, ular qabrga yaqinlashib qoldi.
O‘lim ularning jonini poylab turibdi.
23 Lekin shu paytda insonning himoyachisi bo‘lsa,
Minglarga qarshi chiqib,
O‘sha insonni solih deb tasdiqlaydigan bir himoyachisi
24 O‘sha insonga rahm qilib:
«Ey Xudoyim, uni qabrdan qutqargin,
Bu insonning joni evaziga to‘lov topdim», desa,
25 O‘sha insonning tanasi yosh bolaniki kabi yangilanadi,
Yoshligidagi kabi yana kuchga to‘ladi.
26 O‘sha inson Xudoga ibodat qiladi,
Xudo esa uni qabul qiladi.
Xudoning huzuriga u shodlik bilan kiradi,
Chunki Xudo uni solihlik yo‘liga qaytaradi.
27 O‘sha inson kelib, boshqalarga shunday deydi:
«Mana, men to‘g‘ri yo‘ldan yurmasdan,
Gunoh qilgan edim,
Lekin men o‘zimga loyiq jazoni olmadim.
28 Xudo jonimni qabrdan qutqarib qoldi.
Endi mening hayotim yorug‘ kunlarga to‘la!»

29 Ha, Xudo odamzodga shunday qiladi,
Bir emas, ikki emas, ko‘p marta takrorlaydi.
30 Insonlarni qabrdan saqlash uchun,
Hayot nuri ularning yo‘llarini yoritsin deb, shunday qiladi.
31 Ey Ayub, diqqat qiling, menga quloq soling,

Jim turing, men gapiray.
32 Agar biror gapingiz bo‘lsa, menga javob bering.
Gapiravering, chunki oqlanishingizni xohlayman.
33 Lekin gapingiz bo‘lmasa, menga quloq soling,
Sukut saqlang, men sizga donolikni o‘rgatay.”

34–BOB

Elixu Ayubni takabburlikda ayblaydi

1 Elixu gapida davom etib shunday dedi:

2 “Mening so‘zlarimni tinglang, ey donishmandlar*.
Menga quloq soling, ey bilimdonlar.
3 Til taomning ta’mini tatiganday,
Quloq ham so‘zlarni sinab ko‘radi.
4 Kelinglar, nima to‘g‘riligini tanlaylik,
Nima yaxshiligini birgalikda o‘rganaylik.
5 Ayub shunday deydi: «Men aybsizman,
Lekin Xudo menga adolat qilmayapti.
6 To‘g‘ri bo‘lsam ham, meni yolg‘onchiga chiqarishdi.
Gunohsiz bo‘lsam ham tuzalmas dardga yo‘liqqanman.»
7 Ayubga o‘xshagan odam bormi?
Ayub uchun Xudoga shak keltirish suv ichishday bir gap!
8 Uning o‘rtoqlari badkirdorlardir,
U fosiqlar bilan vaqt o‘tkazadi.
9 Ayub hatto shunday degan:
«Xudoga yoqadigan ish qilishdan hech bir foyda yo‘q!»

10 Shuning uchun menga quloq soling, zakovatlilar.
Xudo aslo fosiqlik qilmas,
Qodir Xudo nohaqlik qilmas.
11 Axir, U odamlarning qilganlariga yarasha qaytaradi,
Qilmishlarining oqibatini o‘z boshlariga keltiradi.
12 Mana bu haqiqatdir:
Xudo fosiqlik qilmaydi,
Qodir Xudo adolatga xiyonat etmaydi.
13 Xudoga yer yuzidagi hukmronlikni birov beribdimi?!
Biror kimsa Xudoni dunyoga hukmdor qilib qo‘yibdimi?!
14 Agar Xudo O‘z nafasini
Qaytarib olishga qaror qilsa,
15 Butun insoniyat birdaniga halok bo‘lgan bo‘lardi,
Odamzod yana tuproqqa qaytgan bo‘lardi.

16 Aqlingiz bo‘lsa eshiting,
Gaplarimga quloq soling.
17 Adolatdan nafratlangan inson hukmdor bo‘la olarmidi?

Qudratli va odil Xudoni hukm qilmoqchimisiz?
18 Shohlarga: «Sizlar yaramassiz», deydigan,
Beklarni fosiq deb ataydigan Xudo–ku!
19 U beklar uchun tarafkashlik qilmaydi,
Boyni kambag‘aldan ustun ko‘rmaydi.
Axir, ularning hammasini O‘zi yaratgan!
20 Odamlar bir zumda o‘ladi.
Yarim kechada qaltiraydi–yu, jon beradi.
Qudratlilar osonlikcha yo‘q qilinadi.

21 Odamlar qilgan ishlarni Xudo kuzatib turadi,
Ular bosgan har bir qadamni Xudo ko‘rib turadi.
22 Biron zulmat yoki qorong‘i joy yo‘qki,
Badkirdorlar o‘sha joyda yashirinib olsa.
23 Insonni hukm qilish uchun
Xudo taftish o‘tkazishi shart emas*.
24 Xudo tekshirmasdan ham qudratlilarni qulatib,
Ularning o‘rniga boshqalarni joylaydi.
25 Xudo qudratlilarning ishlarini kuzatib turadi.
Shuning uchun kechasi ularni ag‘darib tashlaydi,
Ular halok bo‘ladi.
26 Xudo ularni fosiqligi uchun
Hammaning ko‘zi oldida jazolaydi.
27 Chunki ular Xudoga ergashishni rad qildilar,
Xudoning yo‘llarini anglab yetmadilar.
28 Kambag‘allarni shunday ezdilarki,
Ularning nolasi Xudoga yetib bordi.
29 Xudo sukut saqlasa, kim ham Uni hukm qilardi?
U yuzini yashirsa, kim ko‘ra olardi?
Bu biror inson yoki biror xalqning qo‘lidan kelarmikan?!
30 Betavfiqlar boshqa odamlarga tuzoq bo‘lmasin deb,
Xudo ularni hukmdor qilib qo‘ymaydi.

31 Birortasi Xudoga:
«Men jazoimni oldim, endi gunoh qilmayman.
32 Men ko‘rolmaydigan narsalarni o‘rgat,
Ha, noto‘g‘ri ishlar qildim,
Endi bunday qilmayman», — deydimi?
33 Xudo sizning o‘lchovingiz bo‘yicha qaytarishi kerakmi?
Axir, siz Undan nafratlandingiz–ku!
Ey Ayub, men emas, siz qaror qilishingiz kerak.
Qani, bilganingizni ayting–chi.
34 Mana, gaplarimni eshitgan donolar,
Aql–idroklilar shunday deyapti:
35 «Ayub bilmasdan gapiryapti,

Gaplarining ma’nisi yo‘q.»
36 Qani endi, Ayub yaxshilab hukm qilinsa,
Axir, u fosiqlarga o‘xshab gapiryapti–ku.
37 Ayub Xudoga qarshi chiqib,
Gunohi ustiga gunoh qo‘shyapti.
Oramizda Xudoni mazax qilyapti,
Xudoga qarshi ko‘p gap aytyapti.”

35–BOB

Elixu Ayubga Xudoning adolatli ekanini eslatadi

1 Elixu gapini davom ettirib, shunday dedi:

2 “Ey Ayub: «Xudoning oldida aybsizman»,
— deb aytishingiz noto‘g‘ri.
3 Siz Xudoga: «Gunohsizligim
Menga yaxshilik keltirishi kerak edi–ku!
Ammo men yomonlik ko‘rdim!»
— deb aytishingiz ham to‘g‘ri emas.
4 Siz va do‘stlaringiz gapimni eshitinglar.
5 Osmonga qarab ko‘ringlar,
Sizlardan ancha tepada bo‘lgan bulutlarga qaranglar.
6 Itoatsizlik qilsangiz, Xudoga nima zarar?
Gunohlaringiz ko‘paysa, Xudoga nima?
7 Bordi–yu, solih bo‘lsangiz, Unga nima qilib berardingiz?
U sizning qo‘lingizdan biror narsa olishga zormi?
8 Fosiqligingizdan faqat insonlar qiynaladi.
Solihligingiz ham faqatgina insonlarga madad beradi.

9 Zulm haddan tashqari ko‘p bo‘lgani uchun odamlar faryod qiladi.
Zo‘ravonlarning qo‘lidan qutqaringlar, deb yordam so‘raydi.
10 Ammo hech kim Yaratuvchiga yolvormaydi.
Tunlari umid beradigan Xudoga iltijo qilmaydi.
11 U esa yer yuzidagi jonivorlarga qaraganda bizga ko‘proq bilim bergan–ku!
Bizni osmondagi qushlardan aqlliroq qilgan–ku!
12 Zulm ostida qolgan insonlar faryod qilishsa ham, Xudo javob bermaydi.
Axir, ularning o‘zlari takabbur va fosiqdir.
13 Xudo bunday insonlarning puch so‘zlariga umuman quloq solmaydi,
Qodir Xudo ularga e’tibor bermaydi.
14 Ey Ayub! Siz: «Xudoni ko‘rmayapman», deysiz.
Da’voingizni Unga keltirdingiz, endi sabr qiling!
15 Siz: «Xudo g‘azabini sochmayapti,
Fosiqlikka zarracha e’tibor bermayapti», deb o‘ylaysiz.
16 Shunday qilib, Ayub bema’ni gaplarni gapiryapti.
Hech nima bilmay turib, gapni ko‘paytiryapti.”

36–BOB

1 Elixu gapida davom etib shunday dedi:

2 “Yana bir oz sabr qiling, men sizlarga koʻrsatay,
Xudo tomonida turib gapiradigan gaplarim bor hali.
3 Mening bilimim juda koʻp,
Meni yaratgan Xudo odil ekanligini sizlarga koʻrsataman.
4 Rostini aytaman, soʻzlarim yolgʻon emas.
Mana men, bilimi barkamol inson, sizning oldingizdaman.

5 Xudo qudratlidir,
Ammo U insonlardan nafratlanmaydi,
Xudo qudratli va barqarordir.
6 Fosiqlarning yashashiga Xudo yoʻl qoʻymaydi,
Ezilganlarga esa adolat qiladi.
7 Solihlardan yuz oʻgirmaydi,
Solihlarni shohlar bilan birga taxtga chiqaradi,
Ularni to abad yuksaltiradi.
8 Agar insonlar zanjirband boʻlsa,
Azob ularni iskanjaga olgan boʻlsa,
9 Xudo ularning qilmishlariniyu gunohlarini oʻzlariga koʻrsatadi,
Ular magʻrurlanib ketganlarini oshkor qiladi.
10 Yoʻl–yoʻriqlarini tinglashga majbur qiladi,
Yovuzlikdan qaytishga amr qiladi.
11 Agar ular itoat etib, Xudoga xizmat qilsalar,
Qolgan umrlarini farovonlikda oʻtkazadilar,
Hayotlari rohatda oʻtadi.
12 Ammo itoat etmasalar,
Ular oʻlim daryosiga gʻarq boʻladilar*,
Aql–idrokka erishmay, olamdan oʻtadilar.

13 Xudosizlar alamini ichiga yutib yuraveradilar,
Xudo ularni kishanlasa ham yordam soʻramaydilar.
14 Ular sajdagohlardagi fohishlar* orasida,
Yoshliklaridayoq vafot etadilar.
15 Xudo qiynalganlarni oʻsha azoblari orqali qutqaradi,
Zulm va jabr–jafoga mubtalo qilib, ularning koʻzlarini ochadi.
16 Xudo sizni ham darddan ozod qilib,
Bepoyon kenglikka olib chiqadi,
Dasturxoningiz noz–neʼmatga toʻladi.

17 Ammo siz hozir fosiqlarni hukm qilish bilan ovorasiz.
Xayolingiz adolat va hukm bilan band.
18 Ehtiyot boʻling, yana birov sizni boylik bilan vasvasaga solmasin,
Katta poralar sizni yoʻldan urmasin.

19 Boyliklaringiz sizni kulfatdan qutqara olarmidi?!
Qudratu kuchingiz endi sizga yordam bera olarmidi?!
20 Tunni kutavermang*,
Axir, xalqlar kechasi yo‘q bo‘lib ketadilar–ku!
21 Hushyor bo‘ling! Fosiqlikka yuz burmang,
Axir, dard sizni fosiqlikdan saqlash uchun yuborilgan–ku.

Elixu Ayubga Xudoning qudratini eslatadi

22 Xudo O‘z qudrati tufayli yuksakdir!
Unga o‘xshash ustoz bormi?
23 Kim Xudoga yo‘l ko‘rsata olardi?!
Kim Unga: «Qilganlaring noto‘g‘ri», deya oladi?!

24 Xudo qilgan ishlari uchun
Insonlar Uni madh qiladilar,
Siz ham doimo ularga jo‘r bo‘ling.
25 Butun inson zoti Uning ishlarini ko‘rgan,
Hamma uzoqdan turib kuzatadi.
26 Xudo qanchalar buyuk!
Uning buyukligiga aqlimiz yetmaydi,
Xudoning umrini hisoblaydigan sonning o‘zi yo‘q.
27 U suv tomchilarini yig‘ib,
Ularni yomg‘irga aylantiradi.
28 Bulutlardan yomg‘ir yog‘diradi,
Odamzod bundan bahramand bo‘ladi.
29 Xudo qanday qilib bulutlarni yurgizishini
Yoki O‘z maskanidan turib, momaqaldiroqni qanday gumburlatishini
Kim ham tushuna oladi?
30 Mana, qaranglar, Xudo shunday chaqmoq chaqtiradiki,
Hatto dengiz tubi ham yorishib ketadi*.
31 Xudo O‘z qudratli ishlari bilan xalqlarni boshqaradi,
Ularga farovonlik ato qiladi.
32 Chaqmoqni qo‘liga olib,
Belgilagan joyiga borib urishni amr qiladi.
33 Bo‘ron kelayotganini momaqaldiroq bildirib turadi,
Hatto chorva ham oldindan sezadi*.

37–BOB

1 Mana shular haqida o‘ylasam,
Yuragim o‘ynab, joyida sakraganday bo‘ladi.
2 Xudo ovozining gumburlashiga yaxshilab quloq soling.
Uning og‘zidan chiqayotgan guldurosni eshiting.
3 Chaqmog‘i butun falak ostida chaqnab,
Yerning to‘rt burchiga yetib boradi.
4 Undan keyin gulduros eshitiladi,

Xudo O‘zining ulug‘vor ovozi bilan gumburlagan sado chiqaradi,
Uning ovozi eshitilganda chaqmoq chaqnayveradi.
5 O‘z ovozi bilan Xudo ajoyib gulduros hosil qiladi,
Uning qilgan ishlariga aqlimiz yetmaydi.
6 U buyursa yerga qor yog‘adi,
Xudo aytgani uchun sel yog‘adi.
7 U hamma odamlarning ishlarini to‘xtatib qo‘yadi,
Shunda insonlar Xudoning qudratini bilib oladi.
8 Jonivorlar o‘z inlariga kiradi,
O‘z uyalarida yashirinadi.
9 Bo‘ron o‘z makonidan chiqadi,
Sovuq shamol esadi.
10 Xudo nafasi bilan muz hosil qiladi,
Bepoyon suvlar muzlab qoladi.
11 Bulutlarni suv bilan to‘ldiradi–da,
Ularning orasidan chaqmoq chaqtiradi.
12 Xudo bulutlarga yo‘l ko‘rsatadi,
Xudoning amrlari bajo bo‘lishi uchun
Shamolu suv yer yuzi bo‘ylab aylanadi.
13 U ba’zan, odamzodni jazolay deb, yomg‘ir yog‘diradi.
Ba’zan esa yerni sug‘oray,
Odamzodga O‘z sevgimni ko‘rsatay deb, bulutlarni yuboradi.

14 Bir daqiqa jim turing, Ayub, quloq soling,
Xudoning ajoyib ishlari haqida o‘ylab ko‘ring.
15 Xudo qanday qilib bulutlarni boshqarishini
Yoki chaqmoq chaqtirishini bilasizmi?
16 Qanday qilib bulutlar osmonda osilib turishini,
Bilimi barkamol Xudoning ajoyibotlarini bilasizmi?
17 Axir, yer yuzida esgan garmsel* tufayli
Kiyimlaringiz ham isib ketadi–ku!
18 Osmon sayqallangan bronzaday qattiq*,
Xudo uni yoyib qo‘ygan!
Shunday qilish sizning ham qo‘lingizdan keladimi?
19 Xudoga qanday gapirishni bizga o‘rgating.
Biz notavonlar da’voimizni tushuntira olmaymiz.
20 Gapirmoqchi bo‘lganimni birortasi Xudoga aytishi kerakmi?
Axir, inson gapirsa, albatta halok bo‘ladi–ku!
21 Shamol bulutlarni haydagandan so‘ng
Tiniq osmonda charaqlab turgan quyoshga
Hech kim qaray olmaydi.
22 Shimoldan yorqin nurlar taralmoqda,
Xudo ajoyib ulug‘vorlikka burkangan.
23 Biz Qodir Xudoga yetolmaymiz,
Uning qudrati yuksakdir.

U to‘g‘ri hukm chiqaradi, adolatiga xiyonat qilmaydi.
24 Shuning uchun insonlar Undan qo‘rqadi.
Ha, qalbi donolar Xudoni ko‘radi*.”

38–BOB

Egamiz Ayubga javob beradi

1 Shundan keyin Egamiz quyun orasidan Ayubga shunday deb aytdi:

2 “Bilmay turib gapirayotgan kim?
Kim donoligimga gumon qilyapti?
3 Qani, erkakka o‘xshab belingni bog‘la,
Seni so‘roq qilaman, javob ber–chi.

4 Zaminning poydevorini qo‘yganimda qayerda eding?
Dono ekansan, qani ayt–chi!
5 Yer yuzining sarhadlarini belgilagan kim?
Axir, o‘zing bilasan–ku!
Kim yerning ustidan chiziq o‘tkazdi?
6-7 Yerning poydevorini nima ushlab turibdi?*
Tong yulduzlari jo‘r bo‘lib, qo‘shiq kuylaganda,
Ilohiy zotlar* quvonchdan hayqirganda
Yerning tamal toshini* qo‘ygan kim?

8 Dengiz yer tubidan otilib chiqqanda,
Darvozalarni yopib, to‘sib qo‘ygan kim?*
9 Axir, Men bulutlarni dengizga kiyim qilib qo‘ydim.
Dengizni qalin zulmat bilan o‘rab qo‘ygan Menman.
10 Men dengizga chegaralar belgiladim,
Dengizni tambalangan darvozalar bilan to‘sib qo‘ydim.
11 Men dengizga: «Faqat mana shu yergacha kelasan,
Sening mag‘rur to‘lqinlaring shu yerda to‘xtaydi», deb aytdim.

12 Sen umringda biror marta, tong otsin, deb buyurganmisan?
Yoki, sharqdan kun chiqsin, deb aytganmisan?
13 Quyosh nuriga: «Yerning to‘rt burchiga tarqalib,
Fosiqlarni yashiringan joyidan siltab chiqargin», deb aytganmisan?
14 Kun yorishar ekan, matodagi bezaklar kabi
Muhr bosilgan mum kabi
Yer yuzidagi qirlaru vodiylar o‘z shaklini ko‘rsatadi.
15 Fosiqlarga nur berilmaydi,
Ularning yomon niyatda ko‘tarilgan qo‘li sinadi.

16 Dengiz tubidagi buloqlarni borib ko‘rganmisan?
Suvlar tubida yurib, tekshirib ko‘rganmisan?
17 O‘lim darvozalari qayerdaligini bilasanmi?

Zulmat darvozalarini senga koʻrsatishganmi?
18 Bu dunyoning qanchalik ulkanligini bilasanmi?
Agar shularning hammasini bilsang, Menga ayt–chi!

19 Yorugʻlikning maskaniga olib boradigan yoʻlni,
Zulmatning turar joyini bilasanmi?
20 Ularni oʻz joylariga olib bora olasanmi?
Oʻsha joyga qanday borishni bilasanmi?
21 Ha, sen bilasan albatta!
Sen yorugʻlik va zulmatdan oldin tugʻilgansan–da!
Qanchalik uzoq umr koʻryapsan–a!

22 Qor saqlanadigan omborxonalarni koʻrganmisan?
Doʻl saqlanadigan omborlarni–chi?
23 Men ularni kulfat kunlari uchun,
Urush va jang kunlari uchun saqlab qoʻyganman.
24 Yorugʻlik manbaiga olib boradigan yoʻl qani?
Sharq shamoli chiqadigan joy qayerda?

25 Selu jalaga kim yoʻl ochib bergan?
Chaqmoqning yoʻllarini kim belgilagan?
26 Huvullab yotgan biyobonga,
Kimsasiz choʻlga kim yomgʻir yogʻdiradi?
27 Tashlandiq xarobazorlarni suvga qondirib,
U yerlarda maysalar oʻstiradigan kim?

28 Yomgʻirning otasi bormi?
Shabnamni kim dunyoga keltirgan?
29 Muz qayerdan tugʻiladi?
Samodan tushadigan qirovga kim hayot bergan?
30 Suv toshlarday qotib qoladi,
Dengiz sathi muzlaydi.

31 Parvin yulduzlarini sen bogʻlab qoʻya olasanmi?
Hulkar* yulduzini ushlab turgan arqonlarni yecha olasanmi?
32 Yulduz turkumlarini oʻz mavsumida joyiga boshlaysanmi?
Katta ayiq va kichik ayiq burjidagi yulduzlarga yoʻl koʻrsata olasanmi?
33 Osmon qonunlarini bilasanmi?
Sen oʻsha qonunlarni yer yuziga tatbiq qila olasanmi?

34 Bulutlarga qarab baqirib koʻrgin–chi,
Qani, ustingga yomgʻir yogʻarmikan?
35 Sen chaqmoqni chaqtira olasanmi?
U kelib, xizmatingizdaman, deydimi?
36 Kim yuraklarga donolik bergan?
Kallaga aql–idrokni kim solib qoʻygan?*

37-38 Qani, bulutlarni sanashga kimning aqli yetadi?
Yer qaqraganda, tuproq qotib, kesakka aylanganda
Kim falak meshlarini ag‘darib, yomg‘ir yog‘dira oladi?

39-40 G‘orlarida yashirin yotgan,
Inlarida kutib yotgan
Sherning bolalarini to‘ydira olasanmi,
Ona sherga o‘lja topib bera olasanmi?
41 Qarg‘aning bolalari qorni ochib, daydib yurganda,
Menga faryod qilganda ehtiyojlarini qondirgan kim, axir?

39–BOB

1 Tog‘ echkilari qachon tug‘ishini bilasanmi?
Kiyiklar bolalaganini ko‘rganmisan?
2 Ular bolasini necha oy qornida ko‘tarib yurishini bilasanmi?
Ular bolalaydigan vaqtni–chi?
3 Ular cho‘kkalab tug‘adi,
Bolalarini dunyoga keltiradi.
4 Ularning bolalari ochiq joylarda o‘sib, kuchga to‘ladi,
Ota–onasini tashlab ketadi, boshqa qaytib kelmaydi.

5 Qulonga kim ozodlik bergan?
Kim uning arqonini yechib tashlagan?
6 Men dashtlarni unga makon qilib berdim,
Sho‘r yerlar qulonning maskani bo‘ldi.
7 Shahardagi shovqin–surondan u kuladi,
Hech kim uning ustiga minib, unga baqirolmaydi.
8 Qirlar qulonning yaylovidir,
O‘sha yerlarda u ko‘katlarni qidirib yuradi.

9 Yovvoyi buqa senga xizmat qilishga rozi bo‘ladimi?
Tunni sening og‘ilingda o‘tkazadimi?
10 Arqon bilan uni omochga bog‘lay olasanmi?
U yerlaringni ag‘darib beradimi?
11 Kuchi ko‘p, deb unga ishona olasanmi?
Hamma og‘ir ishlaringni unga topshirasanmi?
12 U hosilingni yig‘ib,
Xirmonga olib kelishiga ishonasanmi?

13 Tuyaqush qanotlarini sevinch bilan qoqaveradi,
Ammo uning qanotu patlari laylaknikiga teng kelolmaydi*.
14 Tuyaqush tuxumlarini yerga qo‘yadi,
Ularni qumda isitadi.
15 Birov oyoqlari bilan tuxumlarini bosib ketishidan,
Yovvoyi hayvon ularni ezib tashlashidan xavotirlanmaydi.

16 O‘z bolalariga begonalarga o‘xshab berahm.
Chekkan zahmati behuda, ammo unga baribir.
17 Chunki Xudo unga aql bermagan,
Uni idrokdan qisib qo‘ygan.
18 Ammo tuyaqush qanotlarini yoyib yugurganda*,
Otu chavandozni changida qoldirib ketadi.

19 Otga kuchni sen berganmisan?
Uning bo‘ynini sen yol bilan qoplaganmisan?
20 Sen otlarni chigirtkaday sakratasanmi?!
Otlar baland ovoz bilan kishnab,
Odamlarni qo‘rquvga soladi.
21 Shiddat bilan yerni tepadi,
Qattiq kuch bilan yugurib, jangga otiladi.
22 Qo‘rquvni bilmaydi, vahimaga tushmaydi,
Qilichdan ham qochmaydi.
23 Ularning ustida o‘qdon taraqlaydi,
Atrofida qilichu nayzalar yaltiraydi.
24 Burg‘ular chalinganda otlar bir joyda turolmaydi,
Ular chopqillab, yerni changitadi.
25 Har burg‘u chalinganda kishnaydi,
Uzoqdanoq jang hidini sezadi.
Sardorlarning jangga da’vatlariyu hayqiriqlarini eshitadi.

26 Qarchig‘aylar qanotlarini yoyib, janubga uchadi.
Ularga uchishni sen o‘rgatdingmi?
27 Sen buyurganing uchun burgut parvoz qiladimi?
Sening so‘zing bilan baland joylarda in quradimi?
28 U qoyalarda yashaydi,
Qirrali qoyalar uning qal’asi.
29 O‘sha yerdan turib, burgut o‘ljasini topadi,
Uzoqdan turib ko‘zlari ko‘radi.
30 Uning bolalari qonga to‘yadi,
Jasadlar qayerda bo‘lsa, ular ham o‘sha yerda.”

31 Keyin Egamiz Ayubga shunday dedi:

32 “Qodir Xudo bilan bahslashayotgan odam endi Uni to‘g‘rilaydimi?!
Qani, Xudoni ayblagan gapirsin endi!”

Ayub Egamizga javob beradi

33 Shunda Ayub Egamizga javob berdi:

34 “Men senga javob berishga loyiq emasman,
Damim ichimda, og‘iz ochmayman.
35 Bir–ikki gapirib javob topmadim,
Endi boshqa gapirmayman.”

40–BOB

Egamiz yana Ayubga gapiradi

1 Shundan keyin Egamiz quyun orasidan gapirib, Ayubga shunday dedi:

2 “Qani, erkakka o‘xshab belingni bog‘la,
Seni so‘roq qilaman, javob ber–chi.
3 Sen Meni adolatsizlikda ayblamoqchimisan?
Meni hukm qilib, o‘zingni oqlamoqchimisan?
4 Sening qo‘ling Xudoning qo‘liday qudratlimi?
Uning ovoziga o‘xshab gumburlaydigan ovozing bormi?

5 Shunday bo‘lsa, qani, o‘zingni shonli dabdabaga o‘ragin–chi,
Ulug‘vorlik va salobat bilan burkangin–chi.
6 G‘azabingni to‘kib soch,
Hamma takabbur insonlarga nazar solgin–da,
Ularning popugini pasaytirib qo‘y.
7 Ha, barcha mag‘rur insonlarga qaragin–da,
Ularni yer bilan bitta qil.
Fosiqlarni turgan joyida ezib tashla.
8 Hammasini tuproqqa ko‘mib tashla,
Ha, yuziga tuproq tortib, qabrni yop.
9 Shunda Men senga tan beraman,
O‘z kuching bilan najot topa olarkansan, deyman.

10 Begemotga* qaragin,
Xuddi seni yaratganimday uni ham Men yaratganman,
U ho‘kizga o‘xshab o‘t yeydi.
11 Uning belida kuchi ko‘p,
Qorin mushaklari kuchga to‘la.
12 Dumi sadr daraxtiday kuchli,
Son mushaklari juda ham baquvvat.
13 Uning suyaklari bronzadan yasalgan novlarday,
Qo‘l–oyoqlari temirday mustahkam.
14 Men yaratgan jonivorlar orasida u eng ajoyibidir,
Yaratganning O‘zigina unga bas kela oladi.
15 Yovvoyi hayvonlar o‘ynab yuradigan qirlar
Unga oziq beradi.
16 U xalqoblardagi qamishlar orasida,
Nilufar gullari tagida yotadi.
17 U nilufar gullarining soyasida yotadi,
Irmoq bo‘yidagi tollar uni o‘rab oladi.
18 Daryo jo‘shib oqsa ham u qo‘rqmaydi,
Iordan daryosining to‘lqinlari yuziga urilsa ham
U bexavotir turaveradi.

19 Birov uning koʻzlarini koʻr qilib, ushlay oladimi?!*
Ilmoq bilan burnini teshib tuta oladimi?!

20 Maxluq Levitanni* baliq singari,
Ilmoq bilan ushlay olasanmi?!
Tilini arqon bilan bogʻlay olasanmi?!
21 Burnidan arqon oʻtkazib,
Jagʻini ilmoq bilan tesha olasanmi?!
22 Oʻsha maxluq qayta–qayta sendan rahm–shafqat tilaydimi?!
Xoʻsh, u senga mayin soʻzlar bilan gapiradimi?!
23 Sen bilan ahd tuzib,
Bir umrga quling boʻlib qoladimi?
24 Qush bilan oʻynaganday u bilan oʻynay olasanmi?
Yoki qizlaring uchun uni bogʻlab bera olasanmi?
25 Baliqchilar uning uchun savdolashadimi?!
Savdogarlarga uni boʻlib beradimi?!
26 Uning terisini nayza bilan tesha olasanmi?
Boshini baliqchilarning sanchqisi bilan yora olasanmi?
27 Agar unga qoʻl tekkizsang,
Bir umrga pushaymon boʻlasan!
Ikkinchi qoʻl tekkizmaydigan boʻlasan.

41–BOB

1 Ha, maxluq Levitanni* ushlamoqchi boʻlganlar oʻzini oʻzi aldaydi,
Uning koʻrinishi odamni dahshatga tushiradi.
2 Uni qoʻzgʻatishga hech kimning yuragi dov bermaydi.

Shunday ekan, kim Menga qarshi chiqa oladi?!
3 Xoʻsh, kimdan qarzim borki, hisobini talab qilsa?!
Axir, falak ostidagi hamma narsa Meniki–ku!

4 Men Levitanning qoʻlu oyoqlari,
Beqiyos kuchi va ajoyib tanasi haqida aytib beray.
5 Kim uning terisini shila oladi?
Zirhga oʻxshagan terisini kim teshishi mumkin?*
6 Uning ogʻzini kim ochib koʻra oladi?
Axir, uning tishlari qoʻrqinchli–ku!
7 Uning beli qator tizilgan qalqonlardaydir*,
Ular bir–biriga yopishtirib mahkamlangan.
8 Bir–biriga shunchalik yaqinki,
Hatto orasidan havo ham oʻtolmaydi.
9 Ular bir–biriga yopishgan,
Birga mahkamlangan, ajratib boʻlmaydi.
10 Levitan aksirganda uchqun chiqadi,
Koʻzlari tong nuriga oʻxshab chaqnaydi.

11 Og‘zidan alanga chiqadi,
Olov uchqunlari otiladi.
12 Yonayotgan qamish ustida qaynayotgan qozondan bug‘ chiqqanday,
Uning ham burnidan tutun chiqadi.
13 Uning nafasi ko‘mirni yondiradi,
Og‘zidan alanga chiqadi.
14 Bo‘yni shu qadar baquvvatki,
Ko‘rganlar vahimaga tushadi.
15 Eti qatlam–qatlam bo‘lib, bir–biriga yopishib ketgan,
Ular shunchalik qattiqki, qimirlatib bo‘lmaydi.
16 Yuragi toshday qattiq,
Ha, tegirmon toshiday qattiq.
17 Levitan qo‘zg‘alganda, kuchlilar ham qo‘rqadi,
Levitan tashlanganda, ular g‘ujanak bo‘ladi.
18 Unga tekkan qilich, nayza, yoy o‘qiyu
Xanjar hech ta’sir qilmaydi.
19 Temir unga somon kabidir,
Bronza esa chirigan yog‘och kabidir.
20 Yoy o‘qi uni qochirolmaydi,
Palaxmon toshi somonchalik ta’sir qilmaydi.
21 Tayoq unga xashakday tuyuladi,
Nayzalarning shuvullashidan u kuladi.
22 Qornidagi tangachalari sopol parchasiday o‘tkir,
Loydan yursa, yerni yorib o‘tadi.
23 Levitan harakatlaridan dengiz qaynaydi,
Chuqur suvlarni qaynagan moyday qiladi.
24 U suzgan joylarda yaltiragan iz qoladi,
Dengiz oq sochlar bilan qoplanganga o‘xshaydi.
25 Yer yuzida unga teng keladigani yo‘q,
Bu jonivorda qo‘rquv degan narsa yo‘q.
26 Barcha takabbur jonzotga u past nazar bilan qaraydi,
Mag‘rur yovvoyi hayvonlarning shohi Levitandir.”

42–BOB

Ayub Egamizga javob beradi

1 Shunda Ayub Egamizga javob berdi:

2 “Ha, bilaman, Sen hamma narsani qila olasan.
Sening rejalaringni hech kim buza olmaydi.
3 «Bilmay turib, donoligimga gumon qilayotgan kim?» — deb so‘rading.
O‘sha menman.
O‘zim tushunmaydigan narsalar haqida og‘iz ochdim.
Aqlim yetmaydigan ajoyibotlar haqida gapirdim.
4 Sen: «Qani quloq sol, Men gapiraman.

Seni so‘roq qilaman, javob ber», — deding.
5 Sen haqingda birovlardan eshitgandim,
Ammo endi ko‘zlarim bilan Seni ko‘rib turibman.
6 Shuning uchun endi aytganlarimni qaytib olaman,
Boshimga tuprog‘u kul sochib*, tavba qildim.”

Xulosa

7 Ayubga gapirib bo‘lgandan keyin, Egamiz Temonlik* Elifazga shunday dedi: “Sen va ikki do‘stingdan juda qattiq g‘azabdaman, chunki sen Men haqimda to‘g‘ri so‘zlarni aytmading. Ayub esa to‘g‘ri gapirdi. 8 Endi yettita buqa va yettita qo‘chqor olib, Ayubning yoniga boringlar. O‘sha yerda o‘z gunohlaringiz uchun Menga kuydiriladigan qurbonlik keltiringlar. Ayub sizlar uchun ibodat qiladi. Men uning ibodatlarini qabul qilaman, sizlarga ahmoqligingizga loyiq jazo bermayman. Sizlar Men haqimda to‘g‘ri so‘zlarni gapirmadingiz. Ayub esa to‘g‘ri gapirdi.” 9 Shunday qilib, Temonlik Elifaz, Shuvaxlik Bildad va Namaxlik Zo‘far borib, Egamizning aytganlarini qildilar. Egamiz Ayubning ibodatlarini qabul qildi.

10 Ayub o‘z do‘stlari uchun ibodat qilgandan keyin, Egamiz uning boyligini qayta tikladi. Unga oldingidan ikki baravar ko‘p baraka berdi. 11 Shunda Ayubning hamma aka–ukalari, opa–singillari, eski tanishlarining barchasi kelishdi. Uning uyida ziyofat qilishdi. Egamiz tomonidan yuborilgan kulfatlar uchun Ayubga hamdardlik bildirib, unga tasalli berishdi. Ularning har biri Ayubga bir bo‘lak kumush* va tilla uzuk hadya qildi.

12 Ayubning qolgan umri davomida Egamiz unga oldingidan ham ko‘proq baraka berdi: bu davrda Ayubning o‘n to‘rt mingta qo‘ylari, olti mingta tuyasi, ming juft ho‘kizi va mingta eshagi bor edi. 13 Egamiz Ayubga yetti o‘g‘il va uch qiz ham berdi. 14 Ayub birinchi qiziga Yamima, ikkinchisiga Kaziyo, uchinchisiga esa Xaranxappux deb ot qo‘ydi. 15 Butun yurtda Ayubning qizlariday go‘zal qizlar yo‘q edi. Ayub qizlariga ham aka–ukalari qatori meros berdi.

16 Shundan keyin Ayub yana bir yuz qirq yil yashadi. Farzandlar ko‘rdi, nabiralaru ularning farzandlarini ham ko‘rdi, hammasi bo‘lib to‘rt nasl ko‘rdi. 17 Shunday qilib, Ayub yoshini yashab, oshini oshab, uzoq umr ko‘rib, olamdan o‘tdi.

IZOHLAR

1:1 *Uz* — bu yurtning qayerda joylashgani bahsli. Taxminlarga koʻra, bu yurt Oʻlik dengizning janubidagi Edom yerida yoki Jalila koʻlining sharqidagi hozirgi Suriya hududida yo Arabiston yarim orolining gʻarbida joylashgan boʻlishi mumkin.

1:3 *sharq* — Yaqin Sharq, aynan Iordan daryosining sharqidagi yurtlar nazarda tutilgan.

1:6 *ilohiy zotlar* — ibroniycha matndan soʻzma–soʻz tarjimasi *Xudoning oʻgʻillari*. Bu ibora samoda yashaydigan mavjudotlarga, jumladan, farishtalarga nisbatan ishlatilgan. Eski Ahdda Xudoning taxti atrofida yigʻiladigan ilohiy zotlar haqida bir necha marta soʻz yuritilgan (misol uchun, 3 Shohlar 22:19-22, Zabur 81:1, 88:8, Ishayo 6:1-8 ga qarang).

1:6 *shayton* — ibroniychadagi maʼnosi *ayblovchi*.

1:15 *Savoliklar* — janubdan kelgan koʻchmanchi qabila. Ular Arabiston yarim orolidan kelgan boʻlishi mumkin.

1:17 *Xaldeylar* — hozirgi Fors qoʻltigʻining shimolidagi yerlarda yashagan xalq edi.

1:20 *…qaygʻudan kiyimini yirtib tashladi…sochini qirib tashlab…* — kiyimlarni yirtish va sochni qirish umidsizlikni va qaygʻuli holatni ifodalaydi.

2:1 *ilohiy zotlar* — ibroniycha matndan soʻzma–soʻz tarjimasi *Xudoning oʻgʻillari*. 1:6 ning birinchi izohiga qarang.

2:1 *Shayton* — ibroniychadagi maʼnosi *ayblovchi*.

2:4 *Joniga azob berib koʻr–chi, nima qilar ekan?!* — ibroniycha matndan soʻzma–soʻz tarjimasi *Teri evaziga teri*. Bu ibora oʻz davrida keng qoʻllanilgan boʻlsa kerak.

2:11 *…Temonlik…Shuvaxlik…Namaxlik…* — Temon Edom yurtida joylashgan. Shuvax va Namax shaharlari aniq qayerda joylashgani maʼlum emas. Shuvax shahri Furot daryosi boʻyida yoki Arabiston yarim orolining shimolida, Namax shahri esa Bayrut va Damashq shaharlarining oraligʻida joylashgan boʻlishi mumkin.

3:8 *Levitan* — Kanʼon xalqlarining qadimiy afsonalarida uchraydigan maxluq. Levitan halokat keltiruvchi dengiz kuchlarining va oʻrnatilgan barcha tartibga tahdid soladigan buzgʻunchi kuchlarning ramzidir. Bu oʻrinda Ayubning niyati Levitanni chaqirtirib, quyosh nurini toʻsishdan iborat edi.

4:1 *Temonlik* — 2:11 izohiga qarang.

5:2 *nodon* — *nodon* deb tarjima qilingan ibroniycha soʻz axloqsiz odamlarga ishora qiladi. Bunday odamlar Xudoni sevishni va Unga ishonishni rad qiladilar.

6:4 *Qodir Xudo otgan nayzalar* — koʻchma maʼnodagi ibora boʻlib, kasallik va azob–uqubatga ishora qiladi.

6:14 *Qaygʻu–alam tortayotgan inson…Oʻsha insonga sodiq doʻstlar kerak* — yoki *Doʻstiga mehr koʻrsatmaydigan inson Qodir Xudodan qoʻrqmasligini koʻrsatadi*.

6:19 *Temo yurti…Shava yurti* — Arabiston yarim orolida joylashgan.

7:6 *moki* — gazlama toʻqish jarayonida ishlatiladigan kichkina yogʻoch gʻaltak. Moki dastgohga tortilgan iplar orasidan tez oʻtib, gazlamaning arqogʻini oʻtkazadi.

7:9 *oʻliklar diyori* — ibroniycha matnda *Sheoʻl*. Qadimgi paytlarda odamlar *Sheoʻl*ni yer

ostidagi tubsiz chuqurlik, marhumlar boradigan qorong‘i joy deb tushunardi.

7:12 *Men dengizmanmi yoki dengiz maxluqimanmi?* — qadimgi afsonalarga ko‘ra, dengiz va dengiz maxluqi buzg‘unchi kuchlarning ramzi bo‘lib, o‘rnatilgan barcha tartibga tahdid solar edi. Xudo dunyodagi tartibni saqlab turish uchun bunday kuchlarni jilovlab turadi (38:8-11 ga qarang).

7:20 *Sening menda qasding bormi?!* — ba’zi ibroniy qo‘lyozmalaridan va qadimiy yunoncha tarjimadan olingan (mazkur matndagi iboraning so‘zma–so‘z tarjimasi *Senga og‘irligim tushib qoldimi?!*). Ibroniycha matnda *O‘zimga o‘zim og‘ir yuk bo‘ldim*.

8:1 *Shuvaxlik* — 2:11 izohiga qarang.

9:6 *Zamin ustunlari* — qadimda Isroil xalqining tasavvuriga ko‘ra, yer tep–tekis bo‘lib, yer ostida buyuk dengiz bor edi, dengiz tubida o‘rnatilgan ulkan ustunlar yerni ushlab turardi. Bu ustunlar dengiz tubidagi poydevorga tayanardi.

9:8 *…samoni yoygan…* — Ishayo 40:22 va Zabur 103:2 ga qarang.

9:8 *Dengiz to‘lqinlarini toptab yuradi* — dengiz buzg‘unchi kuchlarning ramzi bo‘lib, o‘rnatilgan barcha tartibga tahdid solar edi. Bu yerda Xudo o‘sha kuchlarni tor–mor qilgan G‘olib sifatida tasvirlangan (yana shu bobning 13–oyatiga va o‘sha oyatning izohiga qarang).

9:9 *Hulkar* — katta burj bo‘lib, burjdagi yulduzlarning joylashuvi ovchi shaklini hosil qiladi. Hulkar Orion nomi bilan ham tanilgan. Yunon mifologiyasiga ko‘ra, Orion ovchi bo‘lgan.

9:9 *Parvin* — kichkina, yorqin burj. Parvin “Yetti opa–singil” degan nom bilan ham tanilgan (yunon mifologiyasiga ko‘ra, bular Atlasning yetti qizi bo‘lgan).

9:13 *Rahob* — Levitanning yana bir ismi, Kan’on xalqlarining qadimiy afsonalarida uchraydigan maxluq. Levitan halokat keltiruvchi dengiz kuchlarining va o‘rnatilgan barcha tartibga tahdid soladigan buzg‘unchi kuchlarning ramzidir. Muqaddas Kitobda Xudoning Levitan ustidan qozongan g‘alabasi Uning kuch–qudrati ramzidir. Zotan, Xudo butun borliq ustidan, shuningdek, O‘z xalqining dushmanlari ustidan g‘olib bo‘lgan qudratli Hukmdordir.

9:17 *Xudo bo‘ron chaqirib, meni ezmoqda…* — 1:18-19 dagi voqea nazarda tutilgan bo‘lsa kerak.

10:10 *Meni sutday quyib, Pishloqday qotirgan O‘zing–ku* — ko‘chma ma’nodagi bu ibora Ayub onasining qornida paydo bo‘lgan lahzaga va homila bo‘lib shakllangan davrga ishora qiladi.

10:21 *Hech kim qaytib kelmaydigan zulmat yurti* — bu ibora va keyingi to‘rt misra *Sheo‘lga*, ya’ni o‘liklar diyoriga ishora qiladi. 7:9 izohiga qarang.

11:1 *Namaxlik* — 2:11 izohiga qarang.

11:8 *o‘liklar diyori* — ibroniycha matnda *Sheo‘l*. 7:9 izohiga qarang.

11:12 *Nodon* — 5:2 izohiga qarang.

12:6 *Go‘yo ular «gah» desa, Xudo qo‘liga qo‘nadi!* — yoki *Ular o‘z xudosini qo‘lida ko‘tarib yuradi*. “O‘z xudosi” deganda bu odamlar ishongan but yoki qilich nazarda tutilgan.

13:15 *Mayli, U meni o‘ldirsin. Boshqa umidim yo‘q–ku!* — yoki *U meni o‘ldirishi mumkin, lekin men baribir umidimni Unga bog‘layman*.

14:13 *o‘liklar diyori* — ibroniycha matnda *Sheo‘l*. 7:9 izohiga qarang.

15:1 *Temonlik* — 2:11 izohiga qarang.

15:8 *Xudoning kengashi* — Xudoning taxti atrofida samoviy mavjudotlar yig‘ilgani haqida Eski Ahdda bir necha marta so‘z yuritilgan (misol uchun, 1:6-12, 2:1-6, 3 Shohlar 22:19-22, Zabur 81:1, 88:8 va Ishayo 6:1-8 ga qarang).

15:23 *…non izlab daydib yuradilar…* — ibroniycha matndan. Qadimiy yunoncha tarjimada *…daydib yurib, kalxatlarga yem bo‘ladilar…*.

16:13 *O‘qlari* — 6:4 izohiga qarang.

16:15 *Qayg‘u–alamdan qanorga burkandim…* — qanor dag‘al qoramtir mato bo‘lib, echki yoki tuya junidan to‘qilgan. Qanorga o‘ranib olish umidsizlikni va qayg‘uli holatni ifodalaydi.

16:20 *Do‘stlarim meni mazax qilyapti…* — yoki *Do‘stim men uchun shafoat qilyapti…*.

17:8 *O‘zini pokdil deb bilganlar…O‘zini aybsiz deb bilganlar…* — Elifaz, Bildad va Zo‘far nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin (2:11 ga qarang).

17:9 *solih odam* — Ayubning o‘zi nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin.

17:13 *o‘liklar diyori* — ibroniycha matnda *Sheo‘l* (shu bobning 16–oyatida ham bor). 7:9 izohiga qarang.

18:1 *Shuvaxlik* — 2:11 izohiga qarang.

18:12 *Ochlikdan ularning sillalari qurib qoladi…* — yoki *Kulfat ularga qarshi tish qayramoqda…*.

18:15 *…oltingugurt bilan qoplanadi* — ko‘chma ma’nodagi bu ibora Xudoning hukmiga ishora qiladi (Ibtido 19:24, Qonunlar 29:23, Zabur 10:6 ga qarang).

19:24 *Temir qalamu qo‘rg‘oshin bilan…* — temir qalam yordamida toshga harflar o‘yib yozilardi. So‘ng o‘yilgan harflarga eritilgan qo‘rg‘oshin quyilardi.

19:25 *Vaqti kelib…* — yoki *Oxiratda…*, ya’ni qiyomatda degan ma’noni bildiradi. Ammo Ayub hayotligida oqlanishga umid qilayotgan bo‘lishi mumkin, deb tushunsa ham bo‘ladi.

19:25 *…U meni himoya qiladi* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *…U tuproq ustida turadi*. Ko‘chma ma’nodagi bu ibora “birovning himoyasiga chiqish”ni bildiradi. Bu o‘rinda tuproq so‘zi 2:8 dagi kul so‘ziga ishora qilayotgan bo‘lishi ham mumkin. Bu holda tuproq Ayubning nochor ahvolini bildiradi, demak, Ayub hayotligida Xudo uni himoya qilishiga umid bog‘lagan bo‘ladi. Tuproq so‘zi yana boshqa bir ma’noda ishlatilib, qabrga ishora qilayotgan bo‘lishi ham mumkin. Agar qabr nazarda tutilgan bo‘lsa, demak, Ayub oxirzamonda Xudo uni himoya qilishiga umid bog‘lagan bo‘ladi.

20:1 *Namaxlik* — 2:11 izohiga qarang.

21:13 *O‘liklar diyori* — ibroniycha matnda *Sheo‘l*. 7:9 izohiga qarang.

22:1 *Temonlik* — 2:11 izohiga qarang.

22:6 *Kambag‘allardan kiyimini yechib olib…* — qadimgi paytlarda hatto kiyimni ham

garovga qo‘yish mumkin edi.

22:14 *osmon gumbazi* — qadimda Isroil xalqining tasavvuriga ko‘ra, osmon gumbazga o‘xshaydi va yer ostidagi tubsizlikning poydevoriga o‘rnatilgan ulkan ustunlarga tayanadi.

22:20 *…Bitta qolmay olovda yonib ketdilar…* — yoki *…Ularning hamma boyligi olovda yonib ketdi…*.

23:2 *…achchiq shikoyat qilaman…* — qadimiy suryoniycha va lotincha tarjimalardan. Ibroniycha matnda *…Xudoga qarshi bosh ko‘tarib, shikoyat qilaman…*.

23:12 *…Kundalik rizqimdan ham ko‘ra Uning so‘zlarini qimmatli bildim* — ibroniycha matndan. Qadimiy yunoncha va lotincha tarjimalarda *Uning so‘zlarini qalbimda saqladim*.

24:2 *Fosiqlar chegaralarni buzadilar…* — qadimgi Isroilda birortasi o‘z yerini ajratib olish uchun toshlardan chegara qilib qo‘yardi. Agar kimdir bu toshlarni joyidan siljitsa, qo‘shnisining ota–bobosidan qolgan yerni u o‘g‘irlayotgan hisoblanardi va bu og‘ir jinoyat edi (Qonunlar 19:14, 27:17 ga qarang).

24:11 *Qator–qator zaytun daraxtlari orasida…* — yoki *Toshlar bilan…*.

24:19 *O‘liklar diyori* — ibroniycha matnda *Sheo‘l*. 7:9 izohiga qarang.

25:1 *Shuvaxlik* — 2:11 izohiga qarang.

26:5 *Suvlar ostidagi o‘liklar diyorida…* — qadimda Isroil xalqining tasavvuriga ko‘ra, yer tep–tekis bo‘lib, yer ostida buyuk dengiz bor edi. O‘liklar diyori o‘sha dengiz ostida edi.

26:6 *o‘liklar diyori* — ibroniycha matnda *Sheo‘l*. 7:9 izohiga qarang.

26:6 *Halokat diyori* — ibroniycha matnda *Abaddo‘n*. Bu so‘z *Sheo‘lni*, ya’ni o‘liklar diyorini bildiradi.

26:9 *to‘lin oyning yuzi* — yoki *O‘z taxti*.

26:11 *osmonning ustunlari* — 22:14 izohiga qarang.

26:12 *Xudo…dengizni mag‘lub qildi* — 9:8 ning ikkinchi izohiga qarang.

26:12 *Rahob* — 9:13 izohiga qarang.

26:13 *ilon* — Rahobga ishora. Rahob yana Levitan nomi bilan tanilgan. 3:8 va Ishayo 27:1 ga qarang.

27:15 *…Bevalari esa aza ham tutolmaydi* — urush va o‘lat dastidan ayollar erlari va ko‘plab farzandlaridan judo bo‘ladilar, chuqur qayg‘uga botadilar. Buning oqibatida ular dafn marosimlari va aza tutish rasm–rusumlarini to‘liq bajara olmaydilar.

27:18 *qush ini* — yoki *ipak qurtining pillasi* yoxud *o‘rgimchak ini*.

28:11 *…daryolarning manbaini topadi…* — qadimiy yunoncha va lotincha tarjimalardan. Ibroniycha matnda *…daryolarni to‘sadi…*.

28:13 *…donolikning qayerda ekanligini…* — yoki *…donolikning qadrini…*.

28:19 *Habashiston* — ibroniycha matnda *Kush*. Bu joy Misrdan janubda bo‘lib, hozirgi Sudan va Efiopiya mamlakatlarining bir qismini o‘z ichiga olgan edi.

28:22 *Halokat* — ibroniycha matnda *Abaddo‘n*. Bu so‘z *Sheo‘lni*, ya’ni o‘liklar diyorini

bildiradi.

28:22 *O‘lim — Sheo‘l*, ya’ni o‘liklar diyori nazarda tutilgan. 7:9 izohiga qarang.

30:13 *…Ularni to‘xtatadigan hech kim yo‘q* — yoki *…Ularga qarshilik ko‘rsatay desam, menga yordam beradigan hech kim yo‘q*.

31:12 *Halokat diyori* — ibroniycha matnda *Abaddo‘n*. 26:6 ning ikkinchi izohiga qarang.

32:2 *Buz avlodi* — Buz Ibrohimning jiyani edi (Ibtido 22:20-21 ga qarang). Bu o‘rindagi ibroniycha so‘zni *Buzlik* deb tarjima qilsa ham bo‘ladi. Buz shahri Arabiston yarim orolidagi Dedon va Temo shaharlari yaqinida joylashgan edi (Yeremiyo 25:23 ga qarang).

32:3 *Natijada Xudo aybdorday bo‘lib qoldi* — yoki *Ammo ular Ayubni aybdor deb e’lon qildilar*.

32:19 *…Yangi sharob quyilgan mesh kabi yorilib ketay, deydi* — qadimgi paytlarda suyuqlik odatda hayvon terisidan qilingan meshlarda saqlanardi. Uzum sharbati bijg‘ib, sharobga aylanganda, meshlar shishardi. Mesh eskirgani sari o‘z cho‘ziluvchanligini yo‘qotgani bois, yangi sharob eski meshga solinganda, meshni yorib yuborardi.

33:18 *…O‘lim daryosidan…* — yoki *…Qilichdan o‘tkazilishdan…*.

34:2 *ey donishmandlar* — Elixu Ayubning uchala do‘sti Elifaz, Bildad va Zo‘farga murojaat qilyapti.

34:23 *…Xudo taftish o‘tkazishi…* — yoki *…Xudo vaqt belgilashi…*.

36:12 *…o‘lim daryosiga g‘arq bo‘ladilar…* — yoki *…qilichdan o‘tkaziladilar…*.

36:14 *sajdagohlardagi fohishlar* — o‘sha paytlarda butparast xalqlar o‘z sajdagohlarida diniy vazifalardan birini fahsh orqali bajarardilar. Butparast xalqlarning udumlariga ko‘ra, odamlar fohishalar va fohishlar bilan jinsiy aloqa qilish orqali o‘z xudolariga topinardilar, xudolaridan farovonlik ato qilishni so‘rardilar. Lekin Egamiz Isroil xalqiga bu yo‘l bilan sajda qilishni qat’iyan man etgan (Qonunlar 23:17-18 ga qarang).

36:20 *Tunni kutavermang…* — o‘limga ishora bo‘lsa kerak (3:20-21, 10:18-22 ga qarang).

36:30 *…Xudo shunday chaqmoq chaqtiradiki, Hatto dengiz tubi ham yorishib ketadi* — yoki *…Xudo osmonni yoritish uchun chaqmoq chaqtiradi, Dengiz tubini esa zulmatga cho‘ktiradi*.

36:33 *…Hatto chorva ham oldindan sezadi* — yoki *…Momaqaldiroq Xudoning g‘azabidan darak beradi*.

37:17 *garmsel* — issiq shamol.

37:18 *Osmon sayqallangan bronzaday qattiq…* — bulutsiz osmonni odamlar zirhli gumbazga o‘xshatishardi (22:14 ga va o‘sha oyatning izohiga, Qonunlar 28:23 ga qarang).

37:24 *Ha, qalbi donolar Xudoni ko‘radi* — yoki *O‘zini dono hisoblagan insonga esa Xudo e’tibor bermaydi*.

38:6-7 *Yerning poydevorini nima ushlab turibdi?* — qadimda Isroil xalqining tasavvuriga ko‘ra, yer tep–tekis bo‘lib, yer ostida buyuk dengiz bor edi, dengiz tubidan chiqqan

ulkan ustunlar yerni ushlab turardi. Ular, bu ustunlarning ostidagi poydevor sirli, faqat Yaratganga ayondir, deb tushunganlar.

38:6-7 *Ilohiy zotlar* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *Xudoning o‘g‘illari*. 1:6 ning birinchi izohiga qarang.

38:6-7 *tamal toshi* — qadimgi paytlarda qurilishda poydevor uchun qo‘yilgan birinchi va eng muhim tosh hisoblanardi. Bu tosh poydevorning bir burchagini hosil qilib, binoning qolgan qismi o‘sha toshning joylashuvi bo‘yicha qurilardi.

38:8 *Dengiz…to‘sib qo‘ygan kim?* — 9:8 ga va o‘sha oyatning ikkinchi izohiga, 26:12 ga qarang.

38:31 *Parvin…Hulkar…* — 9:9 ning izohlariga qarang.

38:36 *…yuraklar…Kalla…* — bu oyatdagi ikki ibroniycha so‘zning ma’nosi bahsli. Ba’zi olimlarning fikri bo‘yicha, ibroniycha matndagi bu ikkala so‘z ibis (issiq mamlakatlarda yashaydigan, laylakka o‘xshash uzun oyoq qush) va xo‘rozga nisbatan ishlatilgan. Qadimgi davrda odamlar: “Ibis qushi va xo‘roz ob–havodan darak beradi”, deb ishonganlari uchun bu parrandalarni aqlli va dono deb hisoblar edilar. Ammo bu o‘rinda bulutlarning ikki turi nazarda tutilgan bo‘lishi ham mumkin.

39:13 *Tuyaqush…Ammo uning qanotu patlari laylaknikiga teng kelolmaydi* — ibroniycha matnda bu oyatning ma’nosi bahsli.

39:18 *…tuyaqush qanotlarini yoyib yugurganda…* — yoki *…tuyaqush o‘rnidan sakrab turib, yugurganda….*

40:10 *Begemot* — bu o‘rindagi ibroniycha so‘z filga ishora qilishi ham mumkin. Ba’zi taxminlarga ko‘ra, bu yerda afsonaviy mavjudot nazarda tutilgan, ammo ushbu oyatning o‘zida yozilganiday, Xudo odamzodni yaratgani kabi, begemotni ham yaratgan.

40:19 *Birov uning ko‘zlarini ko‘r qilib, ushlay oladimi?!* — yoki *Birov uni tuzoqqa tushira oladimi?!* yoxud *Birov uni g‘aflatda qoldirib, ushlay oladimi?!*

40:20 *Levitan* — odatda bu so‘z Kan’on xalqlarining qadimiy afsonalarida uchraydigan maxluqqa ishora qiladi (3:8 izohiga qarang). Ammo bu o‘rinda timsoh yoki katta dengiz maxluqi nazarda tutilgan bo‘lsa kerak.

41:1 *Levitan* — 40:20 izohiga qarang.

41:5 *Zirhga o‘xshagan terisini kim teshishi mumkin?* — yoki *Kim uni jilovlash uchun yaqinlasha oladi?*

41:7 *Uning beli qator tizilgan qalqonlardaydir…* — qadimiy yunoncha va lotincha tarjimalardan. Ibroniycha matnda *Qator–qator qalqonlari uning g‘ururidir….*

42:6 *…Boshimga tuprog‘u kul sochib…* — boshga tuproq va kul sochish umidsizlikni va qayg‘uli holatni ifodalaydi. Ko‘pincha bu harakat Xudodan kechirim so‘rab ibodat qilish va Undan madad tilash bilan birgalikda amalga oshirilgan.

42:7 *Temonlik* — 2:11 izohiga qarang.

42:11 *bir bo‘lak kumush* — ibroniycha matnda *bir kisito*. Bu pul birligining qiymati va og‘irligi haqidagi ma’lumot saqlanib qolmagan. Qadimgi paytlarda ma’lum vazndagi kumush bo‘laklari odatda pul birligi sifatida ishlatilgan.

ZABUR

Kirish

Zabur kitobi Xudoga bag‘ishlangan turli mazmundagi she’rlarning majmuasidir. Ularni ba’zan qo‘shiq qilib kuylashgan, ba’zan esa yakka tartibda yoki guruhda ibodat sifatida aytishgan. Kitob 150 ta sanodan iborat bo‘lib, aksariyat sanolarning muallifi shoh Dovud hisoblanadi. Sanolar yillar davomida to‘plangan. Isroil xalqining Xudoga sajda qilishida bu sanolar muhim o‘rin egallaydi.

Sanolarda ibroniy she’riyatining parallelizm deb atalgan usuli keng qo‘llanilgan. Odatda bu usul biror g‘oyani tasdiqlash, unga urg‘u berish yoki qo‘shimcha ma’no ifodalash maqsadida ishlatiladi. Parallelizm hosil qilishda mazmunan yaqin bo‘lgan gaplar juft misralarda birin–ketin, turli so‘zlar bilan takrorlanadi. Misol uchun,

> “Ey shohlar! Endi aql bilan ish qiling.
> Ey zamin hukmdorlari! Ogoh bo‘ling.” (2:10)

Sanolarda Muqaddas Kitob tarkibidagi ko‘p kitoblarning bosh g‘oyasi o‘z aksini topadi. Bu g‘oyalar hamdu sano, shukrona, imon, umid–ishonch, gunoh oqibatidagi qayg‘u, Xudoning sodiqligi va madadi kabilardan iborat. Barcha sanolarning tub mag‘zida Xudoga bo‘lgan qattiq ishonch, Unga nisbatan samimiy izzat–hurmat yotadi. Sanolarning ijodkorlari o‘zlarining chinakam his–tuyg‘ularini ifodalab, Xudoni cheksiz marhamati uchun olqishlaydilar, qiyinchilik paytlarida esa yurakdagi dardlarini to‘kib soladilar.

Qadimgi Isroilda sanolar mazmuniga ko‘ra turli holatlarda quyidagicha ishlatilgan:

Xudoga hamdu sano aytish uchun (masalan, 104–sano),
qayg‘u–g‘amlarni ifodalash uchun (masalan, 12–sano),
ta’lim berish uchun (masalan, 1–sano),
Isroil shohiga izzat–hurmatini ifoda etish uchun, uning hukmronligi davrida adolat ustun bo‘lishini tilab, Xudoga ibodat qilish uchun (masalan, 71–sano),
jamiki borliq ustidan hukmron bo‘lgan Xudoning qudratini e’tirof etish uchun (masalan, 46–sano),
Quddusga bo‘lgan sevgini izhor etish uchun (masalan, 121–sano),
bayramlarni nishonlash uchun (masalan, 125–sano).

Albatta, aksariyat sanolardan bittadan ortiq maqsadda foydalanilgan.

Iso Masih va’z qilganda va ta’lim berganda sanolardan foydalangan. Yangi Ahd mualliflari ham sanolarning ba’zilarini o‘z kitoblarida qayd etib o‘tganlar. Ilk masihiylar ham sajda qilganlarida, ta’lim berganlarida, Iso Masih haqidagi Xushxabarni boshqalarga hikoya qilib berganlarida sanolardan foydalanganlar.

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

1–SANO

1 Shunday insonlar saodatlidir:
Ular fosiqlar maslahatiga yurmaydi,
Gunohkorlar yo‘lida ular turmaydi,
Mazaxchilar orasida o‘tirmaydi.
2 Ha, ular Egamizning qonunidan zavq oladi,
Tunu kun ta’limotining mag‘zini chaqadi.
3 Unday insonlar oqar suv bo‘yiga o‘tqazilgan
Daraxtlarga o‘xshaydi.
Ular o‘z mavsumida mevasini beradi,
Barglari aslo qurimaydi.
Ular neki qilsa, muvaffaqiyatga erishadi.

4 Fosiqlar esa bunday emaslar,
Shamolda to‘zg‘ib ketadigan somonga o‘xshaydi.
5 Hukmda fosiqlar oqlana olmaydi,
Solihlar jamoasidan gunohkorlar joy ololmaydi.
6 Egamiz solihning yo‘lini qo‘riqlaydi,
Fosiqning yo‘li halokatga yetaklaydi.

2–SANO

1 Nega quturadi xalqlar?!
Nega behuda fitna qilar elatlar?!
2 Zamin shohlari Egamizga
Va U tanlagan shohga qarshi saf tortadilar.
Hukmdorlar fitna qo‘zg‘ab, shunday deydilar:
3 “Sindiraylik ular solgan kishanlarni,
Olib tashlaylik bo‘ynimizdan sirtmoqlarni.”

4 Samoda hukmron bo‘lgan Rabbiy esa
Ularni masxaralab, ustidan kuladi.
5 Rabbiy g‘azab bilan ularni ogoh etadi,
Qahrini sochib, vahimaga solib aytadi:
6 “Men Sionga*, O‘zimning muqaddas tepaligimga
O‘z shohimni joylashtirdim.”

7 Egamizning so‘zlarini shoh e’lon qilmoqda:
“Egamiz menga shunday dedi:
«Sen Mening o‘g‘limsan,
Bugun Men senga ota bo‘ldim*.
8 Tila, xalqlarni senga mulk qilib beraman,
Yerning to‘rt tomoni seniki bo‘ladi.
9 Temir xivchin ila ularni urib ezasan*,
Sopol ko‘zani sindirganday ularni parchalaysan.»”

10 Ey shohlar! Endi aql bilan ish qiling.
Ey zamin hukmdorlari! Ogoh bo‘ling.
11 Qo‘rquv ila Egamizga sajda qiling!
Vahima ila tavba qiling!*
12 Uning o‘g‘liga* ta’zim qiling,
Bo‘lmasa U g‘azablanadi,
Yo‘lingizda yo‘q bo‘lib ketasiz,
Uning g‘azabi tez alanga oladi.

Naqadar baxtlidir Unda panoh topganlar!

3–SANO

1 *O‘g‘li Absalomdan qochib ketgandan keyin*
Dovudning aytgan sanosi.

2 Ey Egam! G‘animlarim naqadar ko‘pdir!
Menga qarshi qo‘zg‘alganlar qanchalar ko‘pdir!
3 Ko‘plar men haqimda:
“Xudodan unga najot yo‘q”, deb aytadilar.
4 Ey Egam, Mening qalqonimsan!
Shuhratim Sensan!
Sen boshimni yuksaltirasan.

5 Egamizdan madad so‘rab qilaman faryod,
Muqaddas tepaligidan* U menga beradi javob.
6 Egamiz meni himoya etgani uchun
Yotib uxlab, yana uyg‘onaman.
7 Har tomondan meni qurshab turgan
O‘n minglarcha g‘animlarimdan qo‘rqmasman.

8 Qo‘zg‘algin, ey Egam!
Najot ber, ey Xudoyim!
Hamma g‘animlarimning yuzlariga urasan,
Qabihlarning tishlarini sindirasan.
9 Ey Egam! Najot Sendan keladi!
Barakalaring xalqingga kelsin!

4–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Torli asboblar jo‘rligida*
aytiladigan Dovud sanosi.

2 Ey mening odil Xudoyim!
Iltijo qilganimda javob ber!
Kulfatda qolganimda meni ozod qilding.
Menga shafqat qilib, ibodatimni eshit.

3 Ey insonlar, qachongacha sha’nimni yerga urasiz?!
Qachongacha puch so‘zlarga ko‘ngil bog‘laysiz?!
Qachongacha yolg‘onlarni izlab yurasiz?!*
4 Unutmangki, Egamiz O‘zi uchun tanlaydi
taqvodorni,
Iltijo qilganimda, Egamiz eshitadi meni.
5 Hatto g‘azablanganingizda ham gunoh qilmang*,
Tunda yotganingizda o‘ylang, sukut saqlang.
6 Munosib qurbonliklar keltiring,
Umidingizni Egamizga bog‘lang.

7 Ko‘p odamlar aytadi:
“Yaxshi zamonlarni kim bizga ko‘rsatadi?!” deb.
Ey Egam, jamoling bizga nurlarini sochsin!
8 Don va sharobi mo‘l bo‘lganlar quvonadi,
Sen yuragimga undan ham ko‘proq shodlik berding.
9 Yotganimda xotirjam uxlayman,
Ey Egam, yolg‘iz Sen meni omon saqlaysan.

5–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Nay jo‘rligida aytiladigan Dovud sanosi.*

2 So‘zlarimga quloq tut, ey Egam!
Diqqat qilgin nolalarimga.
3 Eshitgin, madad so‘rab iltijo etaman,
Sen ham Shohimsan, ham Xudoyimsan!
Shu bois Senga ibodat qilaman.
4 Ey Egam! Tong chog‘i ovozimni eshitasan,
Subhidamda Senga yolvoraman,
Sendan javob kutaman.

5 Qabihlikdan mamnun bo‘lmaydigan Xudosan Sen,
Senga mehmon bo‘lolmas gunohkor inson.
6 Takabburlar huzuringda tura olmaydilar,
Hamma badkirdorlarni Sen yomon ko‘rasan.
7 Yolg‘on gapiradiganlarni Sen qirib tashlaysan,
Ey Egam, qonxo‘r, yolg‘onchilardan Sen jirkanasan.

8 Men esa sodiq sevgingning mo‘lligi sabab
Sening uyingga kiraman.
Muqaddas Ma’badingda ta’zim qilaman,
Qo‘rquv ila Senga sajda qilaman.
9 Naqadar dushmanlarim ko‘p, ey Egam,
Odilliging bilan meni so‘qmog‘ingdan yetakla,

O‘z yo‘llaringni menga ravshan qil.

10 Dushmanlarim og‘zidan haqiqat chiqmaydi,
Ularning yuraklari baloyu ofatdir.
Ochiq qabr kabidir og‘izlari,
Tillari xushomad qiladi.
11 Ey Xudo, ularni jazolagin!
Yomon niyatlari o‘zlarining boshiga yetsin.
Ular Senga qarshi isyon qilganlar.
Gunohlari ko‘pligi uchun ularni haydab yuborgin.

12 Senda panoh topganlarning hammasi sevinsin,
To abad shodlikdan ular kuylasin.
Ularni Sen himoya qilganing uchun,
Seni sevganlar sevinch ila jo‘shsin.
13 Ey Egam! Sen solih kishilarga baraka berasan,
Sening himmating ularni qalqonday himoya qiladi.

6–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Sakkiz torli asbob jo‘rligida aytiladigan Dovud sanosi.*

2 Ey Egam! G‘azab bilan menga tanbeh bermagin,
Qahring sochib, menga jazo bermagin.
3 Ey Egam, madorim yo‘q, rahm qil menga,
Suyaklarim zirqiraydi xastalikdan,
Ey Egam, shifo ber menga.
4 Azob chekmoqda jonim,
Qachongacha kuttirasan, ey Egam, qachongacha?

5 Kel endi, ey Egam, qutqar jonimni,
Sodiq sevging haqi ozod qil meni.
6 Axir, o‘lganda eslamas hech kim Seni,
O‘liklar diyorida* kim shukur qilar Senga?!

7 Oh–voh qilaverib charchadim,
Tunlari ko‘z yoshlarim tufayli o‘rnim ho‘l bo‘ldi,
Yig‘laganimdan to‘shagim shalabbo bo‘ladi.
8 Ko‘zlarim nuri so‘ndi g‘amdan,
Zaiflashdi ko‘zlarim dushmanlarim dastidan.

9 Yo‘qolinglar ko‘zimdan hammangiz, ey
badkirdorlar!
Nola–yig‘ilarimni Egam eshitdi.
10 Egam eshitdi mening iltijoimni,
Egam qabul qiladi mening ibodatimni.

11 Jamiki dushmanlarim uyalib qoladi,
Hammasi vahimaga tushib qoladi,
O‘sha on sharmanda bo‘lib, qaytib ketadi.

7–SANO

1 *Benyamin qabilasidan bo‘lgan Kushning qilmishlari tufayli Dovudning Egamizga aytgan marsiyasi.*

2 Senda panoh topaman, ey Egam Xudo,
Payimga tushganlardan xalos et, qutqar meni.
3 Yo‘qsa, ular meni sherday g‘ajib tashlaydi,
Burda–burda qiladi, hech kim meni qutqarolmaydi.

4-5 Ey Egam Xudo!
Agarda kimgadir nohaqlik qilgan bo‘lsam,
Do‘stimni dushmaniga sotgan bo‘lsam mabodo,
G‘animimni sababsiz talagan bo‘lsam,
Ha, agarda u ishlarni qilgan bo‘lsam,
6 Dushmanlarim ta’qib qilsin, tutsin meni,
Tanamni tuproqqa qorsin,
Jasadimni yerga tashlasin.

7 Qani, g‘azabingni sochgin, ey Egam!
Qo‘zg‘al yovlarimning qahriga qarshi!
Ko‘rib, adolat qilgin!
8 Xalqlarni atrofingga to‘plagin,
Balanddagi taxtingda o‘tirib,
Ular ustidan hukmronlik qilgin.

9 Ey Egam, oliy Hakam O‘zingsan,
Sen xalqlarni hukm qilasan.
Ey yuksalgan Egam,
Hukm paytida yuzimni yorug‘ qil,
Bilasan–ku, solihman, begunohman.
10 Fosiqlarning yovuzligi barham topsin,
Solihlar barqaror bo‘lsin.
Ongu yuraklarni sinaguvchi Sensan,
Ey odil Xudo!

11 Mening qalqonimdir yuksalgan Xudo,
Pokdillarga U najot beradi.
12 Adolatli hakamdir Xudo,
Qabihga U doim g‘azabini sochadi.
13 Agar inson tavba qilmasa,
Xudo qilichini charxlaydi,
Kamonini tayyor qilib turadi.

14 Qirg‘in qurollarini shay qilib qo‘ygan,
Olovli o‘qlarini tayyorlab qo‘ygan.

15 Ana, qabihlar qabihlikdan urug‘ orttiradi,
Dardu balolardan homilador bo‘ladi,
Oxir–oqibatda yolg‘onni tug‘adi.
16 Ular chuqur qaziydilar,
Ammo chohga o‘zlari qulaydilar.
17 Ularning dardu balosi o‘ziga qaytadi,
Zo‘ravonligi o‘zlarining boshiga yetadi.

18 Egamizga, adolating uchun shukur, deyman.
Egamiz — Xudoyi Taologa hamdu sanolar
kuylayman.

8–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Soz jo‘rligida aytiladigan Dovud sanosi.*

2 Ey Egam, bizning Rabbimiz!
Butun yer yuzida Sening noming ulug‘vordir!
Osmondan ham yuksakdir Sening shuhrating!
3 Dushmanlaringning,
Qasoskorlarning ovozini o‘chiray deya,
Sen bolalar va chaqaloqlarni
O‘z qudratingni so‘ylashga o‘rgatding.
4 Qo‘llaring ijodi bo‘lgan osmoningga qaradim,
O‘zing joylashtirgan yulduzlaru oyga boqdim.
5 Inson zoti nedirki, u haqda o‘ylagaysan?!
Bandalar* nedirki, Sen ularni ardoqlagaysan?!

6 Sen ularni O‘zingdan* andak past qilding,
Izzatu sharaf tojini ularga kiygizding.
7 Jamiki yaratganing uzra ularni hukmron qilding*,
Bor narsani ularning oyog‘i ostiga qo‘yding:
8 Jamiki molu qo‘ylarni ham,
Barcha yovvoyi hayvonlarni ham,
9 Samodagi qushlarni va dengizdagi baliqlarni,
Dengizda suzuvchi har xil maxluqlarni.
Ha, ularning ustidan insonni hukmron qilding.

10 Ey Egam, bizning Rabbimiz!
Butun yer yuzida Sening noming ulug‘vordir!

9–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. “Qizlar*” kuyiga aytiladigan Dovud sanosi.*

2 Butun yuragimdan, ey Egam, Senga shukur
aytaman,
Barcha ajoyib ishlaringni so‘ylayman.
3 Sen tufayli shodlanib, quvonaman.
Qo‘shiq aytib, Seni madh etaman,
Ey Xudoyi Taolo!

4 Dushmanlarim chekinib qochganlarida,
Qoqilib, nobud bo‘ldi Sening huzuringda.
5 Sen adolat ila hukm qilib taxtga o‘tirding,
Meni hukm etib, yuzimni yorug‘ qilding.
6 Xalqlarni Sen vahimaga solding,
Qabihlarni qirib tashlading.
Ularning nomini bir umrga o‘chirding.
7 Vayronalar ichra dushmanimiz to abad g‘oyib
bo‘ldi,
Ularning shahrini Sen vayron etding,
Ularning xotirasi tamoman o‘chdi.

8 Egamiz esa to abad O‘z taxtida o‘tiradi,
U taxtini hukm qilish uchun qurgandir.
9 U olamni adolat bilan boshqaradi,
Xalqlarni odilona hukm qiladi.
10 Mazlum uchun Egamiz qal’aday bo‘ladi,
Ha, qayg‘uli damlarda U panoh bo‘ladi.

11 Ey Egam, Seni taniydiganlar
O‘zingga umid bog‘laydi.
Senga yuz burganlarni tark etmaysan.

12 Hamdu sano kuylang Quddusda* taxt qurgan
Egamizga!
Uning ishlarini e’lon qiling xalqlar orasida!
13 Qasoskor Egamiz mazlumlarni yodida tutadi,
Jafokashlar faryodini U unutmaydi.

14 Rahm qil menga, ey Egam, qara!
Mendan nafratlangan g‘animlarim azob bermoqda!
O‘lim og‘zidan meni qaytaradigan Sensan!
15 Shu bois go‘zal Quddus darvozalari oldida
Senga hamdu sano aytayin,
Menga najot bergan Sensan,

Shu bois ham quvonayin.

16 Xalqlar oʻzlari qazigan chuqurga oʻzlari yiqildi*,
Yashirgan toʻrlariga oyoqlaridan ilindi.
17 Egamiz adolatli hukmi ila
Oʻzining kimligini koʻrsatdi.
Qabihlar oʻzlari qoʻygan tuzoqqa ilindi.

18 Qabihlar va Xudoni unutgan jamiki xalqlar
Oʻliklar diyoriga* tushar.
19 Muhtojni Xudo bir umrga unutmas,
Bechoraholning umidini to abad yoʻqqa chiqarmas.

20 Qani, ey Egam! Inson zoti gʻolib chiqmasin,
Xalqlar huzuringda hukm qilinsin.
21 Ularni qoʻrquvga sol, ey Egam!
Xalqlar inson zoti ekanligini bilsin.

22 Nechun, ey Egam, uzoqda turibsan?
Qaygʻuli damlarda Oʻzingni yashirasan?

23 Takabbur qabihlar bechorani taʼqib qiladi,
Toʻqigan igʻvolari oʻzlarining boshiga yetsin.
24 Qabihlar yovuz ehtiroslari bilan maqtanadi,
Ochkoʻzlar Egamizni laʼnatlaydi, Undan nafratlanadi.
25 Xudoga intilmaydi oʻziga bino qoʻygan qabihlar,
“Xudo yoʻqdir”, deb doim oʻylaydi ular.
26 Qabihlarning doim ishi yurishadi,
Xudoning amrlarini ular tushunmaydi,
Dushmanlarini pisand qilmaydi.
27 Ular oʻz koʻnglida oʻylaydilar:
“Biz hech qachon qoqilmaymiz,
Hech qachon kulfatlarga duch kelmaymiz.”
28 Qabihlarning ogʻzidan laʼnat, hiyla, poʻpisa chiqadi,
Soʻzlari bilan ular odamlarni yaralab, barbod qiladi.
29 Ular qishloqlarda yashirinib oladi,
Begunoh insonni poylab oʻldiradi.
Koʻzlari ojiz qurbonni qidiradi.
30 Sherga oʻxshab panada kutib turadi,
Bechorani ushlayman deb, pisib yotadi,
Zaifni oʻz sirtmogʻiga ilintirib, ushlab oladi.
31 Qabihlar oʻz kuchi bilan zaifni yiqitadi,
Uni yotqizib, ezib tashlaydi.
32 Ular oʻz koʻngillarida: “Xudo qilmishlarimizni
unutgan,
U koʻzlarini yumib olgan, hech narsani koʻrmaydi”,

deb o‘ylaydi.

33 Qani, ey Egam! Urgin qabihlarni,
Ey Xudo! Unutmagin mazlumlarni!
34 Nechun qabihlar Sendan nafratlanadi?
Nechun o‘z ko‘nglida ular:
“Xudo Mendan hisob so‘ramaydi”, deb aytadi?
35 Sen esa ko‘rib turasan,
Bilib turasan kulfatu azobda qolganlarni.
Qo‘llaringni ularga uzatasan,
Ojiz o‘zini Sening panohingga topshiradi,
Sen yetimga doim yordam bergansan.
36 Qabihlaru yovuzlarning qo‘lini qirqqin,
Qilmishlari uchun ulardan hisob so‘ra,
Toki ular boshqa yovuzlik qilmasin.

37 Egamiz Shohdir to abad,
O‘zga xalqlar yo‘q bo‘ladi Uning yurtidan.

38 Ey Egam, mazlumlarning istaklariga quloq solasan,
Ularning yuraklariga dalda berasan.
Yetimu mazlumning dodini Sen eshitib,
39 Yer yuzida banda ularni vahimaga solmasin deya,
Ularga Sen adolat qilasan.

10–SANO

Ijrochilar rahbariga. Dovud sanosi.

1 Egamizda men panoh topaman,
Qanday qilib siz menga:
“Qush kabi uchib ketgin tog‘larga”, deysiz?
2 Sizlar menga:
“Qara, pokdilning yuragini panadan otmoq uchun
Qabihlar yoylarini tayyorladi,
O‘qlarini shaylab, mo‘ljalga oldi.
3 Qonun oyoq osti bo‘lganda,
Solih nima qila oladi?!” deb aytasiz.

4 Egamiz O‘zining muqaddas Ma’badidadir,
Egamizning taxti samodadir.
U insonni ko‘zdan qochirmaydi,
Nigohi insonni tekshirib turadi.
5 Egamiz solihni hamda qabihni sinaydi,
Zulmni sevuvchidan U nihoyatda nafratlanadi.

6 Qabihning ustiga cho‘g‘, oltingugurt yog‘diradi*,

Ularga ulush qilib garmselni* beradi.
7 Egamiz adolatlidir, U to‘g‘ri ishlarni sevadi,
To‘g‘ri yuradigan inson
Uning marhamatidan bahramand bo‘ladi.

11–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Sakkiz torli asbob jo‘rligida aytiladigan Dovud sanosi.*

2 Najot bergin bizga, ey Egam!
Taqvodor bir inson qolmadi,
Senga sodiq inson yo‘q bo‘lib ketdi.
3 Hamma bir–biriga yolg‘on so‘zlaydi,
Xushomadgo‘ylik bilan bir–birini aldaydi.

4 Xushomadgo‘y tillarni Egamiz kesib tashlasin,
Maqtanchoq og‘izlarni U qirib tashlasin.
5 Axir, ular: “Og‘zimiz bilan erishamiz har narsaga,
Tilimiz o‘zimizniki, kim xo‘jayin bizga?!” deb aytadi.

6 Egamiz aytmoqda: “Muhtoj ezilib ketdi,
Bechora nola qildi. Endi qo‘zg‘alaman,
O‘zlari intilgan najotga yetkazaman.”
7 Egamizning va’dalari g‘oyatda pokdir,
Uning so‘zlari o‘choqda
Yetti karra tozalangan kumushga o‘xshaydi.

8-9 Har tarafda qabihlar daydib yuradi,
Har yoqda odamlar yomonlikni maqtab yuradi.
Ey Egam! Bulardan bizlarni saqlagaysan,
To abad bu nasldan bizni himoya qilgaysan.

12–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Dovud sanosi.*

2 Ey Egam, qachongacha meni unutasan?
Nahotki meni to abad unutsang?!
Qachongacha mendan yuz o‘girasan?
3 Qachongacha jonim azobda qoladi,
Kun bo‘yi yuragim g‘amga to‘ladi?
Qachongacha dushmanim mendan ustun keladi?
4 Javob ber, ey Egam Xudo, boq holimga!
Kuchimni qaytargin, toki ketmayin o‘lim uyqusiga.
5 “Uni yengdim”, deb aytmasin dushmanim,
Yiqilganimda sevinmasin yovlarim!

6 Men umid bog‘layman sodiq sevgingga,
Najotingdan qalbim to‘ladi quvonchga.
Ey Egam, qo‘shiq aytaman Senga,
Zero, Sen inoyat aylading menga.

13–SANO

Ijrochilar rahbariga. Dovud sanosi.

1 Ahmoqlar* o‘z ko‘nglida: “Xudo yo‘q”, deydi.
Ular yaramaslardir, qilmishi jirkanch ishlardir,
Yaxshilik qiluvchi biron zot yo‘qdir.

2 “Idrokli biron zot bormikan?
Bormikan Menga yuz burgan?” deya
Insonga Egamiz samodan boqar.
3 Hammasi adashgan, birday buzilgan,
Yaxshilik qiluvchi bir kimsa yo‘qdir,
Hatto bironta ham yo‘q!

4 Ular idroksiz, badkirdor,
Xalqimni bir luqma nonday yeb yuboradi,
Hech qachon Egamizga sajda qilmaydi.
5 Ana, bosayotir ularni qattiq vahima,
Xudo solihlar bilandir birga.
6 Badkirdorlar mazlumning niyatini puchga chiqarsa
ham,
Egamiz mazlumlarning panohidir.

7 Eh, Quddusdan* Isroilga najot kelsaydi!
Egamiz O‘z xalqini yana farovonlikka erishtirsa,
Yoqub nasli shod bo‘lgay, Isroil sevingay!

14–SANO

Dovud sanosi.

1 Ey Egam, kim yashaydi Sening maskaningda?
Kim makon topadi Sening muqaddas tog‘ingda?*

2 To‘g‘ri yurib, to‘g‘ri ish qilganlar yashaydi,
Yurakdan haq gapni aytganlar yashaydi.
3 Boshqalarga bo‘hton qilmaganlar yashaydi,
Do‘stlariga yomonlik qilmaganlar yashaydi,
Qo‘shnilarini haqorat qilmaganlar yashaydi.
4 Razil kimsalardan nafratlanganlar yashaydi,
Ey Egam, Sendan qo‘rqqanlarni izzatlaganlar
yashaydi,

O‘ziga zarar bo‘lsa ham, ahdida turganlar yashaydi.
5 Qarz berib sudxo‘rlik qilmaganlar yashaydi.
Aybsizga qarshi guvohlik berish uchun pora
olmaganlar yashaydi.

Bularni qilganlar tinch–omon bo‘ladi.

15–SANO

Dovud qo‘shig‘i.

1 O‘zing saqla meni, ey Xudo!
Men Senda panoh topaman.

2 Egamga aytdim: “Mening Rabbimsan,
Sendan boshqa mening buyuk baxtim yo‘q.”
3 Naqadar ulug‘vordir yurtdagi taqvodorlar,
Ulardan men g‘oyat zavq olaman.
4 Soxta xudolarga ergashganlarning kulfati ortadi.
Ularning ichimlik nazri qon ekan,
Men ularning bu nazrlariga qo‘shilmayman,
Soxta xudolarning ismlarini tilga olmayman.

5 Ey Egam! Barqarorligim Sensan,
Muvaffaqiyatim ham O‘zingdirsan,
Kelajagimni Sen ta’minlaysan.
6 Hosildor yerni meros olgan insonga o‘xshayman.
Axir, Sen meni ajoyib mulkning sohibi qilding!

7 Egamni olqishlayman,
U menga yo‘l ko‘rsatadi,
Tunda ham qalbim menga o‘git beradi.
8 Men doim Egamga ko‘z tikaman,
U o‘ng tomonimda bo‘lgani uchun
Meni hech narsa qo‘zg‘ata olmas.

9 Shu bois, ey Egam, yuragim quvonchga to‘la,
Jonim ham quvonadi.
Tanam xavf–xatarsiz yashaydi.
10 Meni o‘liklar diyorida* qoldirmaysan,
Taqvodoringni* qabrda chiritmaysan.
11 Menga hayot so‘qmog‘ini O‘zing ko‘rsatasan,
Huzuringda shodlik meni qamrab oladi,
Menga boqiy huzur–halovatni Sen berasan.

16–SANO

Dovud ibodati.

1 Ey Egam, haqli da’voimni eshit,
Faryodimga e’tibor ber.
Hiylasiz og‘zimdan chiqqan
Ibodatimga quloq tut.
2 Begunohligimni ko‘rsatgin Sen,
Adolatni ko‘rsin ko‘zlaring.

3 Hatto yuragimni taftish qilib,
Tunda meni sinab ko‘rsang,
Agar meni imtihon qilsang,
Yomon niyatni menda topa olmasding.
Og‘zim gunoh qilmas, qarorim shudir.
4 Insonlar qilmishini men qilmadim,
Sening amringga men itoat etdim,
Zo‘ravonning yo‘llaridan o‘zimni saqladim.
5 Qadamlarim so‘qmoqlaringda sobit bo‘ldi,
Oyoqlarim hech qachon toyib ketmadi.

6 Senga iltijo qilaman, ey Xudo,
Bilaman, Sen menga javob berasan.
Menga quloq tutib, so‘zlarimni eshitgin.
7 Sodiqligingni zohir et ajoyib ishlar ila.
Raqiblardan qochib Senga borganlarga
O‘ng qo‘ling bilan najot berguvchi Sensan.
8 Meni ko‘zlaring qorachig‘iday asragin,
Meni qanotlaring soyasida yashirgin,
9 Meni talaydigan fosiqlardan asragin,
Atrofimda shay turgan ashaddiy yovlarimdan
yashirgin.
10 Ularning yuragida shafqatga joy yo‘q,
Og‘izlari bilan kiborlarcha gapiradi.
11 Ular meni ta’qib qilib, o‘rab olganlar,
Yerga urmoq uchun menga ko‘zlarini tikadi.
12 Dushmanlarim meni g‘ajimoqchi bo‘lgan sherga
o‘xshaydi,
Pana joyda pisib yotgan yirtqich sherga o‘xshaydi.

13 Kel, ey Egam! Ularga qarshi yuz bur,
Tiz cho‘ktirgin ularni!
Qiliching ila fosiqlardan qutqargin meni!
14 Ey Egam! Qudrating ila
Meni bunday insonlardan qutqargin,

Ularning nasibasi faqatgina bu dunyodadir.
Tayyorlab qo‘ygan achchiq ko‘rgiliklaring bilan
Ularni to‘ydirgin,
Hatto bolalariga ham yetsin,
Nabiralari ham totib ko‘rsin.

15 Solih bo‘lganim uchun men Seni ko‘rgayman,
Uyg‘onib, jamolingni ko‘rganimdan rozi bo‘lgayman.

17–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Egamizning quli Dovud sanosi. Egamiz Dovudni jamiki dushmanlari va Shoulning qo‘lidan ozod qilgandan keyin Dovud Egamizga atab shu qo‘shiqni aytdi.*

2 Seni sevaman, ey Egam, mening qudratim.

3 Egam suyangan qoyamdir*, mening qal’am,
qutqaruvchimdir.
Ha, Xudodir mening qoyam, Unda panoh topaman.
Udir mening qalqonim, qudratli najotkorim*,
qo‘rg‘onim.
4 Egamga iltijo qilaman,
G‘animlarimdan U meni xalos qiladi.
Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin!

5 Meni o‘lim to‘rlari chirmab olgandi,
Balo–qazo sellari dahshat ila bosib kelgandi.
6 Ha, o‘liklar diyorining* to‘rlari meni o‘rab olgandi,
O‘lim o‘z tuzog‘iga meni asir qilgandi.
7 Kulfatda qolganimda Egamga iltijo qildim,
Ha, nola qildim Xudoyimga.
U Ma’badidan turib, ovozimni eshitdi,
Ohu nolam qulog‘iga yetib bordi.

8 O‘sha zamon yer yuzi titrab, tebrandi,
Tog‘larning poydevori larzaga keldi,
Egam g‘oyat g‘azabga mingan edi.
9 Burnidan tutun buruqsab chiqardi,
Og‘zidan otash pishqirardi,
Oldidan qip–qizil cho‘g‘ yog‘ilardi.
10 U ko‘klarni yorib, pastga tushdi,
Oyoqlari ostida — qora bulut.
11 Egam bir karubga* minib uchdi,
Yel qanotlari uzra uchib keldi.
12 Atrofini zulmat bilan o‘radi,

Quyuq, qora bulutlarni O‘ziga chayla qildi.
13 Ulkan nur Egamning oldidan chiqdi,
Do‘l va qip–qizil cho‘g‘ qop–qora bulutlarni
parchaladi.
14 Egamizning ovozi ko‘klarda guldiradi,
Xudoyi Taoloning sadosi eshitildi*.
15 O‘qlarini otdi,
Chaqmoq chaqtirib, yovlarini tirqiratdi,
Ularni sarosimaga soldi.
16 Egamizning tahdidlaridan,
Uning qahrli nafasidan
Dengizning tubi ko‘rinib qoldi,
Zamin poydevori* yalang‘och bo‘lib qoldi.

17 Egam yuqoridan qo‘l uzatib, meni tutdi,
Bahaybat suvlardan meni chiqarib oldi.
18 Meni kuchli g‘animlarim qo‘lidan,
Mendan nafratlangan yovlarimdan qutqardi,
Ular mendan kuchli edilar.
19 Qora kunimda ular menga hamla qildilar,
Ammo Egam menga tayanch bo‘ldi.
20 Meni bexavotir joyga chiqarib qo‘ydi,
Mendan mamnun bo‘lib, najot berdi.

21 Egam solihligim uchun meni mukofotlaydi,
Aybsizligim uchun meni taqdirlaydi.
22 Zero, men Egamning yo‘lidan yurdim,
Axloqsizlik qilmadim, Xudoyimdan yuz o‘girmadim.
23 Uning hamma qonun–qoidalariga rioya qildim,
Farmonlarini chetga surib qo‘ymadim.
24 Uning oldida benuqson bo‘ldim,
Gunoh qilishdan o‘zimni saqladim.
25 Shu sababli Egam meni pok deb bildi,
Solihligimga yarasha mukofot berdi.

26 Ey Egam! Senga sodiq bo‘lganga Sen sodiq
bo‘lasan,
Yaxshi insondan yaxshiligingni ayamaysan,
27 Pok kishiga pokligingni ko‘rsatasan,
Egrining ayyorligini o‘z boshiga solasan.
28 Ahli kamtarga esa najot berasan,
Dimog‘dorni yerga urasan.

29 Ey Egam Xudo! Chirog‘imni yoquvchi O‘zingsan,
Zulmatni men uchun yorug‘likka aylantirasan.
30 Ey Xudoyim! Senga suyanib lashkarni yo‘q

qilaman,
Senga suyanib devorlardan oshib o‘taman.

31 Xudoning yo‘li komildir,
Egamizning kalomi chin haqiqatdir,
Panoh izlab borganga U qalqondir.
32 Egamizdan boshqa Xudo kim ekan?!
Xudoyimizdan bo‘lak suyanchiq Qoya bormikan?!
33 Meni qudratli qiluvchi Xudodir,
Yo‘limni O‘zi bexatar qiladi.
34 U oyoqlarimni kiyik oyog‘iday qiladi,
Cho‘qqilar uzra meni bexatar yurgizadi.
35 Qo‘llarimni jang qilishga o‘rgatadi,
Barmoqlarim bronza yoyni buka oladi.
36 Ey Egam, Sen menga zafar qalqoningni bergansan,
O‘ng qo‘ling menga tayanch bo‘ladi,
Madading esa meni yuksaltiradi.
37 Oyoqlarim uchun yo‘limni keng qilgansan,
Oyoqlarim sira og‘ib ketmaydi.

38 G‘animlarimni quvlab, tutib oldim,
Ularni yo‘q qilmay ortga qaytmadim.
39 Shunday ezdimki ularni, tura olmadilar,
Oyoqlarim ostida cho‘zilib qoldilar.
40 Sen menga quvvat berib, jangga yubording,
Menga qarshi otlangan yovni oldimda bosh
egdirding.
41 G‘animlarimni mendan qochirding,
Mendan nafratlanganlarni men yo‘q qildim.
42 Ular madad so‘rab faryod qildilar,
Najotkorni esa topolmadilar,
Ey Egam, g‘animlarim Senga yolvordilar,
Ammo Sen javob bermading.
43 Shamolning changiday ularni ezdim,
Yo‘ldagi loydek sidirib tashladim.

44 Sen meni xalqning urush–janjalidan xalos etding.
Meni ellarga yo‘lboshchi qilding,
O‘zim tanimagan elat menga qaram bo‘ldi.
45 Ovozimni eshitiboq quloq tutdi,
Yot ellar menga bo‘yin egdi.
46 Yot ellar holsizlanib yiqildi,
Qaltirab manzilidan chiqib qochdi.

47 Egam barhayotdir! Suyangan Qoyamga olqishlar
bo‘lsin!

Najotkorim Xudo yuksalsin!
48 Qasdimni olgan Xudodir,
Xalqlarni menga U tobe qilgan,
49 Meni g‘animlarimdan U qutqargan,
Bosqinchilardan meni ustun qilgan,
Meni zo‘ravonlar qo‘lidan xalos etgan.

50 Shu bois, ey Egam, xalqlar ichra
Senga hamdlar aytaman!
Seni kuylab sano aytaman!

51 Egamiz O‘z shohini ulug‘ zafarlarga erishtiradi,
O‘zi tanlagan shoh Dovud va uning nasliga
To abad sodiq sevgisini ko‘rsatadi.

18–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Dovud sanosi.*

2 Xudoning shuhratini samolar namoyon qiladi,
Uning ijodini falak toqi aytib turadi.
3 Osmon kundan–kunga buni bildiradi,
Har tun bundan xabardor qiladi.
4 Samo, falak aytmas bir gap, yo bir jumla,
Chiqmas ulardan hech bir sado.
5 Ammo xabarlari* har tomonga tarqaladi,
Olamning chetigacha yetib boradi.

Xudo samolarda quyosh uchun chodir qurgan.
6 Quyosh go‘shangadan chiqqan kuyovga o‘xshaydi.
Qahramonlarga o‘xshab g‘ayrat bilan yo‘lagidan
boradi.
7 Samolarning bir chetidan u chiqib,
Aylanib, boshqa bir chetiga yo‘l oladi,
Uning taftidan hech narsa yashirina olmaydi.

8 Egamizning qonuni mukammaldir,
Bizga yangi kuch ato etadi,
Egamizning farmonlari ishonchlidir,
Soddalarga donolik beradi.
9 Egamizning buyruqlari to‘g‘ridir,
Qalblarni shodlikka to‘ldiradi,
Egamizning amrlari ravshandir,
Ular ko‘zlarga nur beradi.
10 Egamizdan qo‘rqish poklikdir,
Bu to abad davom etadi.
Egamizning qoidalari haqiqatdir,

Hammasi g‘oyat adolatlidir.
11 Ular sof oltindan ham a’lodir,
Toza asaldan ham shirinroqdir.

12 Ey Egam, qoidalaring menga, O‘z qulingga o‘git
beradi,
Qoidalaringga itoat etganlar buyuk mukofot oladi.
13 Kim o‘z xatosini bila oladi?!
Yashirin xatolardan meni O‘zing poklagin.
14 Men, qulingni oshkora gunohdan saqlagin,
Ustimdan gunoh hokim bo‘lmasin.
Shunda men aybsiz bo‘laman,
Og‘ir gunohdan ham xoli bo‘laman.

15 Ey Egam, suyangan Qoyam, Qutqaruvchim!
Og‘zimdan chiqqan so‘zlar,
Yurakdagi niyatlarim Senga ma’qul bo‘lsin.

19–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Dovud sanosi.*

2 Kulfatda qolganingda, Egamiz senga javob bersin,
Bobomiz Yoqubning Xudosi seni tinch–omon
saqlasin.
3 Muqaddas maskanidan U senga madad yuborsin,
Quddusdan* U senga tayanch bo‘lsin.
4 U sening hamma nazrlaringni yodda tutsin,
Kuydirilgan qurbonliklaringni qabul etsin.
5 Ko‘ngling istaganini Egamiz senga in’om qilsin,
Hamma rejalaringni ro‘yobga chiqarsin.
6 Shunda biz zafaringni sevinch ila kuylaymiz,
Xudoyimiz nomi bilan bayroqlar o‘rnatamiz,
Hamma iltijolaringni Egamiz ro‘yobga chiqarsin.

7 Bilaman, Egamiz O‘zi tanlagan shohga najot beradi,
Egamiz muqaddas samosidan unga javob beradi,
Egamiz o‘ng qo‘li bilan unga buyuk g‘alaba ato qiladi.
8 Ba’zilar jang aravalariga ishonadi,
Ba’zilar otlari bilan maqtanadi,
Biz esa Egamiz Xudoga ishonamiz.
9 Ular holsizlanib yiqiladilar,
Biz esa kuchayib qad rostlaymiz.

10 Ey Egam, shohimizga ato qilgin g‘alaba,
Iltijo qilganimizda, javob bergin bizga*.

20–SANO

[1] *Ijrochilar rahbariga. Dovud sanosi.*

[2] Ey Egam! Sening qudrating tufayli shoh quvonadi,
Sen bergan zafarlardan u naqadar lazzatlanar!
[3] Koʻnglidagi istaklarini roʻyobga chiqarding,
Uning tilaklarini rad qilmading.
[4] Ulugʻ barakani unga ato qilding,
Uning boshiga sof oltin toj kiygizding.
[5] Sendan umr soʻraganda, umr berding,
Uzoq hamda boqiy umr baxsh etding.
[6] Shohning shuhrati Sen bergan zafarlar tufayli
ulugʻdir,
Unga dabdaba, ulugʻvorlik ato qilgan Sensan.
[7] Sen to abad unga baraka berasan,
Unga juda yaqin boʻlib,
Uni shodlikka toʻldirasan.
[8] Egamizga shohimiz umid bogʻlaydi,
Xudoyi Taoloning sodiq sevgisi tufayli
U hech qachon qoqilmaydi.

[9] Ey shohimiz, qoʻling barcha dushmanlaringni
magʻlub qiladi,
Ha, oʻng qoʻling sendan nafratlanganlarni magʻlub
qiladi.
[10] Sen zohir boʻlganing zamon
Qizigan tandirday ularni yondirasan.
Egamiz Oʻz gʻazabi bilan ularni yutib yuboradi,
Alanga ularni yondirib tashlaydi.
[11] Ey shohimiz, ularning naslini
Yer yuzidan qirib tashlaysan,
Zurriyotini insoniyat orasidan yoʻqotasan.
[12] Dushmanlaring senga qarshi yomonlikni reja
qilsalar,
Ular senga qarshi fitna qoʻzgʻasalar,
Hech narsaga erisha olmaydilar.
[13] Kamoningdan ularga oʻqlar otasan,
Ortiga qochishga majbur qilasan.

[14] Oʻz qudrating tufayli yuksalaver, ey Egam,
Qudratingni kuylab, hamdu sano aytamiz.

21–SANO

[1] *Ijrochilar rahbariga. “Tongda chiqqan kiyik” kuyiga*

aytiladigan Dovud sanosi.

2 Ey Xudoyim! Nega meni tark etding?!
Nega mendan uzoqdasan shu qadar?!
Ey Xudoyim! Nechun menga najot bermaysan?!
Ohu nolalarimni eshitmaysan?!
3 Ey Xudoyim, kun bo‘yi iltijo qilaman,
Sen esa javob bermaysan.
Tun bo‘yi yolvoraman,
Ammo menga tinchlik yo‘q.

4 Baribir Sen Muqaddas Xudosan,
Isroilning hamdu sanosi qurshab olgan taxtingni.
5 Ota–bobolarimning umidi Senda edi,
Sen ularga najot berding.
6 Ular Senga nola qilib, najot topdilar,
Ular Senga ishonib, uyalib qolmadilar.

7 Axir, men inson emas, bir qurtdirman.
Odamlar hazar qilgan, xalqlar nafratlangan.
8 Meni ko‘rgan har kim ustimdan kular,
Meni haqoratlab, bosh chayqab derlar:
9 “Egangga ishon, O‘zi qutqarib olar,
Egang sendan mamnun bo‘lsa, U najot berar.”

10 Onam qornidan Sen meni chiqargan eding,
Onam bag‘rida O‘zing meni omon saqlagan eding.
11 Senga tayanaman tug‘ilganimdan buyon,
Mening Xudoyimsan onam dunyoga keltirgandan
buyon.
12 Mendan uzoq bo‘lmagin!
Axir, kulfat yonginamda–ku,
Menga madad berguvchi biron kimsa yo‘q!

13 Bir gala buqalar* Meni qurshab olgan,
Ha, Bashan o‘lkasining* kuchli buqalari Meni o‘rab
olgan.
14 O‘kirib o‘ljasini pora qiladigan sherga o‘xshab,
Men tomon ular og‘izlarini katta ochgan.

15 Hayotim suv kabi to‘kildi,
Suyaklarim bo‘g‘inidan bo‘shashdi,
Yuragim mum kabi ichimda erib ketdi.
16 Madorim qurib, sopol parchasiday bo‘lib qoldim*,
Tilim tanglayimga yopishib qoldi,
Meni o‘lim to‘shagiga yotqizding.

17 Atrofimda koʻppaklar izgʻiydi,
Badkirdorlar toʻdasi meni qurshab olgandir,
Qoʻlu oyoqlarimni ular ilma–teshik qiladi*.
18 Hamma suyaklarim koʻrinib turadi,
Dushmanlarim koʻzlarini chaqchaytirib,
Yeb qoʻygudek boʻladi.
19 Kiyimlarimni ular oʻzaro boʻlishgan,
Libosim uchun qur'a tashlashgan.

20 Mendan uzoq turma, ey Egam!
Kuchim manbai Sensan! Tez kel, yordam ber!
21 Jonimni qilich damidan qutqar,
Hayotimni koʻppaklar changalidan qutqar!
22 Sherlar ogʻzidan qutqargin meni!
Yovvoyi buqalar shoxidan asragin meni!

Sen iltijoimga javob berding.
23 Birodarlarimga Sen haqingda aytaman,
Jamoa orasida Senga hamdu sano oʻqiyman.
24 Ularga shunday deyman:
"Egamizga hamdu sano ayting, ey Undan
qoʻrqqanlar!
Egamizni ulugʻlang, ey Yoqub nasli!
Egamizni izzatlang, ey Isroil nasli!
25 Kulfatda qolgan bechoradan Egamiz yuz oʻgirmadi.
Uning qaygʻularidan hazar qilmadi, nafratlanmadi.
Bechoraning nolalarini Egamiz eshitdi."

26 Ulugʻ jamoa ichra
Hamdu sano aytishimning sababi Sensan.
Sendan qoʻrqqanlar oldida ontimni ado etaman.
27 Ey Egam, qashshoqlar yeb toʻyadilar*,
Senga yuz burganlar Seni madh qiladilar,
Ular dunyo turguncha tursinlar!

28 Egamizni eslab, Unga yuz bursinlar
Yer yuzidagi jamiki insonlar!
Jamiki urugʻu elatlar
Unga sajda qilsinlar!
29 Egamiz hokimiyati mutlaqdir,
Elatlar ustidan U hukmrondir.

30 Jamiki boylar ham ziyofat yeb, Unga ta'zim qiladi.
Tuproq ostiga ketayotganlar ham Unga sajda qiladi,
Hatto oʻz hayotini saqlay olmaydiganlar ta'zim qiladi.
31 Avlodlar Unga xizmat qiladi,

Kelgusi nasllar Rabbiy haqida eshitadi.
32 Ular kelib Egamizning najoti haqida e’lon qiladi,
Uning qilganlarini hali tug‘ilmagan xalqlarga aytadi.

22–SANO

Dovud sanosi.

1 Egam mening cho‘ponimdir,
Men muhtojlik ko‘rmasman aslo.
2 Yam–yashil yaylovlarda U menga orom beradi,
Sokin irmoqlar bo‘yida U meni yetaklaydi.
3 U menga qayta kuch baxsh etadi.
O‘zining nomi haqi–hurmati
Meni to‘g‘ri yo‘lga boshlaydi.

4 Ey Egam!
Hatto zulmat vodiysida* yursam ham,
Xavf–xatardan qo‘rqmayman,
Axir, Sen men bilan birgasan.
Sening cho‘pon tayog‘ing*,
Xiviching* meni himoya qiladi.

5 Dushmanlarimning ko‘z o‘ngida
Men uchun dasturxon tuzaysan.
Boshimga moy surtib,
Sen meni hurmat bilan kutib olasan.
Kosamni lazzatli ne’matlarga lim–lim to‘ldirasan.
6 Umrim bo‘yi Sening mehr–shafqating izimdan
yuradi,
Ey Egam, Sening uying to abad mening maskanim
bo‘ladi.

23–SANO

Dovud sanosi.

1 Egamiznikidir zamin, undagi butun borliq,
Olamu unda yashovchi jamiki jonzot.
2 U olamni o‘rnatgan dengizlar uzra,
Mustahkam qilgan uni ummonlar uzra*.

3 Kim turishi mumkin Egamizning muqaddas
makonida?
Kim chiqishi mumkin Uning tepaligiga?*
4 Qo‘li halol, qalbi toza insonlar,
Soxta narsalarga ko‘ngil qo‘ymaganlar,
Yolg‘ondakam ont ichmaganlar.

5 Egamiz ularga baraka beradi,
Najotkor Xudo ularni oqlaydi.
6 Egamizga yuz burgan jamoa oʻshandaydir.
Ha, Xudoga intilgan Yoqub nasli* shundaydir.

7 Qaddingizni rostlang, ey darvozalar!
Ochilinglar, ey azaliy eshiklar!
Toki kira qolsin ulugʻvor Shoh!
8 U ulugʻvor Shoh kim ekan?
Janglarda gʻolib boʻlgan,
Kuchli, qudratli Egamiz Shohdir!
9 Qaddingizni rostlang, ey darvozalar!
Ochilinglar, ey azaliy eshiklar!
Toki kira qolsin ulugʻvor Shoh!
10 U ulugʻvor Shoh kim ekan?
Sarvari Olamning Oʻzi ulugʻvor Shohdir.

24–SANO

Dovud sanosi.

1 Yuragimni ochaman Senga, ey Egam!
2 Senga umid bogʻlayman, ey Xudoyim!
Sharmanda boʻlishimga yoʻl qoʻymagin,
Dushmanlarim mendan ustun kelmasin.
3 Senga ishonganlar aslo boʻlmasin sharmanda.
Sharmandalik kelsin
Senga asossiz xiyonat qilganlarning boshiga.

4 Ey Egam, yoʻllaringni menga koʻrsat,
Soʻqmoqlaringni menga oʻrgat.
5 Oʻzing meni boshlab borgin,
Haqiqatingni menga oʻrgatgin,
Najotkorim Xudo Oʻzingsan,
Kun boʻyi Sendan umid qilaman.

6 Yodingda tut, ey Egam, buyuk shafqatingni
Hamda sevgida sodiqligingni.
Axir, azaldan Sen shunday qilgansan.
7 Yoshlikda qilgan gunohlarimni esga olmagin,
Itoatsizliklarim uchun meni jazolamagin.
Sodiq sevging haqi yodga ol meni,
Axir, Sen yaxshisan, ey Egam!

8 Egamiz yaxshi, adolatlidir!
U gunohkorlarga yoʻl–yoʻriq koʻrsatadi.
9 U kamtarni toʻgʻrilikka boshlaydi,

Kamtarin insonni Oʻz yoʻliga oʻrgatadi.
10 Egamiz qilgan har ishi orqali
Uning ahdiga rioya qilganlarga
Sevgisiyu sadoqatini koʻrsatadi.

11 Mening ayblarim koʻp.
Ey Egam, Oʻz noming haqi
Ayblarimni kechirgin.

12 Agarda inson Egamizdan qoʻrqsa,
Egamiz unga toʻgʻri yoʻl tanlashni oʻrgatadi.
13 Oʻsha inson umrini farovonlikda oʻtkazadi,
Uning nasli yurtni mulk qilib oladi.
14 Egamiz Undan qoʻrqadiganlarga
Oʻz niyatlarini ishonib bildiradi,
Oʻz ahdini ularga ma'lum qiladi.
15 Nigohim doimo Egam tomondadir,
U oyoqlarimni tuzoqdan xalos qiladi.

16 Ey Egam, holimga boq, mehribonlik qil.
Men yolgʻizman, tushkunlikka tushganman.
17 Yurakdagi gʻamlarim ortib bormoqda,
Shu kulfatdan meni qutqargin.
18 Kulfatu gʻamlarimni koʻrib,
Barcha gunohlarimdan oʻtgin.

19 Qara, dushmanlarim naqadar koʻp,
Mendan qattiq nafrat qilarlar.
20 Hayotimni asra, qutqargin meni,
Sharmandali ahvolga solmagin meni,
Zotan, Senda panoh topaman men.
21 Haqqoniylik, toʻgʻrilik saqlasin meni,
Zotan, Sendan umid qilaman men.

22 Ey Xudo, qutqargin Isroilni
Jamiki kulfatlaridan!

25–SANO

Dovud sanosi.

1 Ey Egam, toʻgʻri yurganim uchun
Meni oqlagin.
Qoqilmasdan Senga tayandim.
2 Sinab, imtihon qil meni, ey Egam!
Yuragimni, niyatimni sinab koʻr!
3 Sening sodiq sevging koʻz oʻngimdadir,

Senga doim sodiqman*.

4 Yolg‘onchilarga men sherik bo‘lmayman,
Munofiqlar bilan do‘st bo‘lmayman.
5 Fosiqlar to‘dasidan nafrat etaman,
Qabihlarga men sherik bo‘lmayman.

6 Namoyon qilmoq uchun aybsizligimni
Qo‘llarimni yuvaman, ey Egam.
Qurbongohing atrofida yuraman,
7 Baland ovoz ila shukrona qo‘shig‘ini kuylayman,
Jamiki mo‘jizalaring haqida aytaman.

8 Ey Egam, sevaman Sen maskan qilgan uyni,
Ulug‘vorliging porlagan joyni.
9 Gunohkorlar qatori jonimni olma,
Qonxo‘rlar qatori hayotimga chek qo‘yma.
10 Ularning qo‘llari tuzadi yovuz reja,
O‘ng qo‘llari poraga to‘la.

11 Men esa pok hayot kechiraman,
Qutqar meni, qil menga shafqat.
12 To‘g‘ri yo‘ldan og‘mayman,
Ey Egam, ulug‘ yig‘inlarda Seni olqishlayman.

26–SANO

Dovud sanosi.

1 Egam nurim va najotimdir,
Kimdan qo‘rqaman?!
Egam hayotimning qal’asidir,
Kim meni qo‘rqita olar?!
2 Meni o‘ldirmoqchi bo‘lib,
Yovuzlar ustimga bostirib kelganda,
Ha, g‘animu dushmanlarim menga hujum qilganda,
Qoqilib, yiqilib tushadilar.
3 Hatto butun lashkar meni o‘rab olsa ham,
Yuragimda aslo qo‘rquv paydo bo‘lmas.
Hatto menga qarshi jangga otlansa ham,
Ishonchim hech ham yo‘qolmas.

4 Bir narsani Egamdan so‘raganman,
Ha, Undan istaganim bitta narsadir:
Egamning uyida to abad yashay,
Egamning jamolini ko‘ray,
Ma’badda turib, Unga muntazir bo‘lay.

5 Kulfatda qolgan kunlarimda
U meni O‘z chaylasida omon saqlaydi.
Chodiri ostida meni yashiradi,
Baland qoya tepasiga o‘tqazib qo‘yadi.

6 Endi esa har tarafdagi g‘animlarim ustidan
Boshim mag‘rur ko‘tarilgandir.
Shodlikdan hayqirib,
Egamning Chodirida qurbonlik keltiraman.
Egamni olqishlab, qo‘shiq aytaman.

7 Eshitgin, ey Egam, iltijo qilganimda,
Shafqat qilgin, javob ber menga.
8 “Menga intil!” deganingni qalbim eshitdi,
Ha, ey Egam, men Senga intilaman.
9 Mendan yuz o‘girmagin,
G‘azab ila men, O‘z qulingdan voz kechmagin,
Madadkorim Sen bo‘lgansan–ku, ey Egam.
Rad etma, tark aylama meni, ey najotkorim Xudo!
10 Ota–onam meni tark etsa hatto,
Ey Egam, Sen meni qabul qilasan.
11 Yo‘lingni menga ko‘rsat, ey Egam,
Dushmanlarim poylab turgani uchun
Meni to‘g‘ri so‘qmoqlaringdan yetakla.
12 G‘animlarim qo‘llariga topshirma meni.
Axir, soxta guvohlar, nohaq ayblovchilar
Menga qarshi chiqdilar.

13 Shubham yo‘q, tiriklar diyorida
Egamning ezguligini albatta ko‘raman.
14 Egamizga umid bog‘la,
Dadil bo‘l, yuragingga dalda ber,
Egamizga umid bog‘la!

27–SANO

Dovud sanosi.

1 Senga iltijo qilaman, ey Egam,
Meni eshitmay qolmagin, ey suyangan Qoyam.
Agar menga gapirmay sukut saqlasang,
Qabrga tushgan odam kabi bo‘lib qolaman.
2 Eshitgin, Senga iltijo qilaman.
Muqaddas maskaningga* qo‘llarimni cho‘zib,
Faryod qilib, Sendan madad so‘rayman.

3 Meni fosiqlarning qatoriga qo‘shmagin,
Ularning qilmishlari yomonlikdir,
Qo‘shnilariga tilyog‘lamalik qiladi,
Yuraklarida esa yovuz niyatdir.
4 Qilmishiga yarasha ularga jazo bergin,
Iflosliklariga yarasha jazolagin.
Qabih ishlariga yarasha adabini bergin,
Xizmatiga yarasha ularga qaytargin.
5 Ey Egam, ular ishlaringni qadrlamas,
Sening ijodingga e’tibor qilmas,
Sen ularni yiqitasan,
Ular qaytib tiklanolmas.

6 Olqishlar bo‘lsin Egamizga,
Iltijolarimni U eshitdi.
7 Egam — mening qudratim, qalqonimdir,
Yurakdan Unga umid bog‘laganman.
Egam menga madad berdi, baxtiyorman.
Qo‘shig‘im ila Unga shukrona aytaman.

8 Egamiz O‘z xalqining qudratidir,
O‘zi tanlagan shohning najot qo‘rg‘onidir.

9 Xalqingga najot ber, ey Egam,
O‘z elatingga baraka bergin.
Ularning cho‘poni bo‘lgin,
To abad ularga g‘amxo‘rlik qilgin.

28–SANO

Dovud sanosi.

1 Egamizga hamdlar ayting, ey ilohiy zotlar*,
Egamizning qudratiyu shuhratiga hamdlar o‘qing.
2 Egamizning sharafiga hamdlar o‘qing,
Muqaddas ulug‘vorlikka burkangan Egamizga sajda
qiling!*

3 Egamizning ovozi suvlar uzra eshitiladi,
Ulug‘vor Xudo guldirab sado beradi.
Ha, azim suvlar uzra
Egamiz guldirab sado beradi.
4 Egamizning ovozi qudratlidir,
Egamizning ovozi haybatlidir.

5 Egamizning ovozi sadr daraxtlarini qulatadi,
Hatto Lubnondagi sadr daraxtlarini* parchalab

tashlaydi.
6 Lubnon tog‘larini Egamiz buqaday sakratadi,
Ha, Xermon tog‘ini* yovvoyi buzoqday sakratadi.
7 Egamizning ovozi chaqmoq chaqtiradi,
8 Egamizning ovozi sahroni titratadi,
Egamiz Kadesh sahrosini larzaga soladi.

9 Egamizning ovozi ulkan daraxtlarni egib yuboradi*,
O‘rmonlarni yalang‘ochlab, shilib yuboradi,
“Egamiz ulug‘vordir”, deb Ma’badida hamma
kuylaydi.

10 Egamiz to‘fonni* jilovladi,
U to abad Shoh bo‘lib taxtda o‘tiradi.
11 Egamiz O‘z xalqiga kuch ato etsin,
O‘z xalqiga tinchlik bilan baraka bersin.

29–SANO

1 *Dovud sanosi. Egamizning uyi bag‘ishlangan paytda aytilgan qo‘shiq.*

2 Ey Egam, Seni ulug‘layman!
Qabr og‘zidan meni qutqarding,
Dushmanlarim mening ustimdan kulishiga yo‘l
qo‘ymading.
3 Sendan madad so‘rab yolvordim, ey Egam Xudo,
Menga Sen berding shifo.
4 Ey Egam, o‘liklar diyoridan* jonimni olib chiqding,
Qabrdan meni qutqarib qolding.

5 Ey Egamizning taqvodorlari!
Egamizga hamdu sano kuylanglar,
Uning muqaddas nomini olqishlang.
6 Egamizning g‘azabi bir lahza davom etadi,
Lutfu karami bir umr tugamasdir.
Shu bois qayg‘u–alam tun bo‘yi davom etsa ham,
Tong bilan birga shodlik ham kirib keladi.

7 Ishlarim yurishganda,
“Aslo qoqilmasman!” der edim.
8 Ey Egam, lutfu karaming bilan
Meni tog‘day mustahkam qilganding.
Ammo yuzingni o‘girganingda,
Men dahshatga tushdim.

9 Ey Egam, men Senga iltijo qildim,

Shafqat soʻrab, ey Rabbiy, Senga yolvordim:
10 Agar men kirib ketsam qabrga,
Mening oʻlimimdan ne foyda Senga?!
Tuproq Senga hamdu sano aytarmi?!*
Sening sodiqligingni u soʻylarmi?!
11 Eshit, ey Egam, menga rahm qilgin,
Ey Egam, menga madadkor boʻlgin!

12 Azamni Sen toʻyga aylantirding,
Aza libosini* egnimdan olib tashlading,
Shodlikni menga kiygizding.
13 Qalbim sukut saqlamay, Seni kuylab sano oʻqisin,
Ey Egam Xudo, Senga to abad shukur aytaman.

30–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Dovud sanosi.*

2 Ey Egam, Senda men panoh topaman,
Sharmanda boʻlishimga aslo yoʻl qoʻyma,
Adolatlisan, meni qutqargin.
3 Quloq tut menga, darrov xalos qilgin,
Mening panoh qoyam boʻlgin.
Najot topay, mustahkam qoʻrgʻonim boʻlgin.

4 Chindan ham Sen suyangan qoyamsan, qal'amsan,
Oʻz noming haqi meni yetakla, yoʻl koʻrsatgin.
5 Sen mening panohimsan.
Qoʻyilgan tuzoqdan meni qutqargin.
6 Hayotimni Senga topshiraman, ey Egam,
Meni qutqarasan, ey sodiq Xudo.

7 Soxta xudolarni izzatlaganlarga
Men nafratimni sochaman.
Ey Egam, men Senga umid bogʻlayman.
8 Sodiq sevging ila shod–xurram boʻlay,
Qaygʻularimni Oʻzing koʻrgansan,
Jonim azobda qolganini bilasan.
9 Meni gʻanim qoʻliga bermading,
Oyoqlarimni bexavotir yerga qoʻyding.

10 Rahm qil, ey Egam, kulfatda qoldim,
Koʻzlarim qaygʻudan toldi,
Jonu tanam adoyi tamom boʻldi.
11 Hayotim azob bilan tugaydi,
Yillarim oh–voh bilan bitadi.
Gunohlarim* dastidan kuchdan qoldim,

Etlarim suyaklarimga yopishib ketgan.

12 Dushmanlarim meni haqorat qiladi,
Qo‘shnilarim mendan hazar qiladi.
Do‘stlarim ham mendan qo‘rqadi,
Ko‘chada ko‘rib meni, qochib ketadi.
13 Meni unutdilar, go‘yo o‘lganman,
Go‘yo singan sopol idish kabiman.
14 Eshityapman, ko‘pchilik g‘iybat qiladi,
Atrofimni dahshat o‘rab olgan.
Birgalikda menga qarshi fitna to‘qishadi,
Meni o‘ldirmoqni niyat qilishadi.

15 Ey Egam, men Senga umid bog‘layman,
“Mening Xudoyim Sensan”, deb aytaman.
16 Hayotim Sening qo‘lingdadir,
G‘animlarim qo‘lidan,
Payimga tushganlardan meni qutqargin.
17 Jamoling men, qulingga nurlarini sochsin,
Sen sodiqsan, meni qutqargin.
18 Yo‘l qo‘yma, ey Egam, sharmanda bo‘lishimga,
Madad so‘rab iltijo qildim Senga.
Qabihlar sharmandayi sharmisor bo‘lsin,
O‘liklar diyoriga* jim kirib borsin.
19 O‘chsin ularning yolg‘onchi ovozlari,
Zero, takabburlik va nafrat bilan
Ular solihga qarshi so‘ylar.

20 O, naqadar buyukdir Sening ezguliging!
O‘zingdan qo‘rqqanlarga uni saqlab qo‘ygansan,
Senda panoh topganlarga hadya qilasan,
Hammaning ko‘zi oldida in’om qilasan.
21 Huzuringda ularni himoya qilasan,
Inson fitnalaridan omon saqlaysan.
Ularni O‘z chodiring ostida
Ig‘volardan saqlab turasan.

22 Qamalda qolgan shaharday bo‘lganimda
Menga ajoyib sadoqatingni ko‘rsatganing uchun
Ey Egam, Senga olqishlar bo‘lsin!
23 Vahimaga tushib men:
“Ey Egam, Sening nazaringdan mahrum bo‘ldim”,
degandim.
Ha, madad so‘rab Senga yolvorganimda
Iltijolarimni eshitding.

24 Ey Egamizning taqvodorlari, Uni seving!
Unga sodiq bo‘lganlarni Egamiz himoya qiladi,
Takabburlarga to‘liq jazo beradi.
25 Bardam bo‘ling, dadil bo‘lsin yuragingiz,
Ey siz, Egamizdan umid qilganlar!

31–SANO

Dovud qasidasi.*

1 Itoatsizligi kechirilganlar baxtlidir,
Egamiz kimning gunohidan o‘tgan bo‘lsa,
O‘sha inson baxtlidir.
2 Egamiz kimning aybini yozmagan bo‘lsa,
O‘sha inson baxtlidir,
Ruhida hiyla bo‘lmaganlar baxtlidir.

3 Ey Egam, gunohimni bo‘ynimga olmay, rad
qilganimda,
Tanam qoq suyak bo‘lib qolgandi,
Kun bo‘yi oh–voh qilib chiqardim.
4 Kechayu kunduz tarbiya berishdan to‘xtamading,
Saraton issig‘idagiday madorim qurib qoldi.
5 Endi oldingda gunohimni e’tirof etdim,
Aybimni yashirmay, o‘zim aytdim:
“Egam oldida itoatsizligimni bo‘ynimga olaman.”
Sen esa mening gunohimni kechirding.

6 Shu bois har bir taqvodor
Vaqt borida Senga ibodat qilsin.
Shunda azim suvlar to‘foni
Taqvodorlarga yetib bormas.
7 Sen mening panohimsan,
Meni kulfatlardan Sen asraysan,
Najot qo‘shig‘i ila meni o‘raysan.

8 Egamiz aytar: “Sizlarga Men yo‘l ko‘rsataman,
Yuradigan yo‘llaringizni o‘rgataman,
Maslahat beraman, sizlarni kuzataman.
9 Ongsiz ot yoki xachir kabi bo‘lmanglar,
Ularni yo‘lga solmoq uchun suvluq, jilov kerak,
Bo‘lmasa ular yoningizga kelmaydi.”

10 Fosiqning azobi ko‘pdir,
Lekin Egamizdan umidvorlarni
Sodiq sevgi qurshab oladi.
11 Ey solihlar, Egamiz tufayli shodlaning, quvoning!

Ey barcha koʻngli poklar, shodlikdan kuylang!

32–SANO

1 Sevinch ila Egamizga qoʻshiq kuylang, ey solihlar!
Unga hamdu sano aytmoq pokdil insonlarga
munosibdir!
2 Lira chalib, Egamizga hamdlar ayting,
Oʻn torli arfa chalib, Unga qoʻshiq kuylang.
3 Egamizga yangi bir qoʻshiq ayting,
Mahorat ila tor chalib, shodlikdan hayqiring.

4 Egamizning kalomi haqiqatdir,
Uning barcha ishlari ishonchlidir.
5 Egamiz adolatu haqiqatni sevadi,
Zamin Uning sodiq sevgisiga toʻla.

6 Samolar bunyod boʻlgan Egamizning kalomidan,
Samodagi jismlar yaralgan Uning nafasidan.
7 U dengiz suvlarini yigʻib qoʻygan,
Tubsiz suvlarni goʻyo omborga joylab qoʻygan*.

8 Butun yer yuzi Egamizdan qoʻrqsin,
Butun olam ahli Undan hayiqsin.
9 U gapirdi, aytgani mavjud boʻldi,
Amr qildi, zamin yaratildi.

10 Egamiz xalqlarning rejalarini parokanda qiladi,
U xalqlarning niyatlarini puchga chiqaradi.
11 Egamizning rejalari to abad sobit turadi,
Uning niyatlari nasldan naslga oʻtib boradi.
12 Egamizni oʻz Xudosi deb bilgan xalq baxtlidir!
Egamiz, azizim deb tanlagan xalq baxtlidir!

13 Egamiz samodan boqar,
Inson zotini U koʻrib turar.
14 U taxt qurgan joyidan turib,
Hamma yer yuzida yashovchilarni kuzatar.
15 U hammaning yuragini yaratgan,
Hammaning ishlarini anglagan.
16 Lashkari koʻpligidan shoh qutulmaydi,
Kuchi koʻpligidan jangchi gʻolib boʻlavermaydi.
17 “Jang otlari najot berar” deyish puch xayoldir,
Ular qudratli kuchi bilan qutqara olmaydi.

18 Egamiz koʻrib turar Oʻzidan qoʻrqqanlarni,
Uning sodiq sevgisiga umid qilganlarni.

19 Egamiz ularni oʻlimdan qutqaradi,
Ochlikdan saqlab, tirik qoldiradi.

20 Jonimiz Egamizga muntazirdir,
U bizning madadkorimiz, qalqonimizdir.
21 Biz Muqaddas Xudoga umid bogʻlaymiz,
U tufayli yuragimiz shodlikka toʻla.

22 Ey Egam! Senga hamon umid bogʻlaymiz,
Sodiq sevging bizga yor boʻlsin.

33–SANO

1 *Dovud Abumalek oldida oʻzini telbalikka solib, uning huzuridan quvilgandan keyin* aytgan sanosi.*

2 Har doim Egamni olqishlayman,
Uning madhi tilimdan aslo tushmaydi.
3 Egam bois jonim faxrlanadi,
Mazlum eshitib, shod boʻlsin.
4 Men bilan birga olqishlang Egamni,
Birgalikda ulugʻlaylik Uning nomini.

5 Egamga yuz burdim, U javob berdi,
Hamma qoʻrquvlardan U xalos qildi.
6 Egamizdan umid qilganlarning yuzlarida nur,
Ularning yuzlari aslo shuvut boʻlmaydi.
7 Bu bechora iltijosin Egamiz eshitdi,
Barcha uqubatlardan uni qutqardi.
8 Egamizdan qoʻrqqanlarning atrofida
Egamizning farishtasi qarorgoh qurib,
Ularga najot baxsh etadi.
9 Egamizning muruvvatini tatib koʻr,
Egamiz yaxshi ekanligini bilib ol.
Naqadar baxtlidir Unda panoh topganlar.
10 Ey taqvodorlar, Egamizdan qoʻrqing.
Undan qoʻrqqanlar aslo muhtojlik koʻrmas.
11 Hatto yirtqich sherlar ovqatsiz,
Ular ochlikdan azob chekadi.
Egamizga yuz burganlardan esa
Farovonlik ayrilmaydi.

12 Keling, ey bolalar, tinglangiz meni,
Oʻrgatayin men Egamizdan qoʻrqishni.
13 Hayotdan zavqlanishni,
Baxtli uzoq umr koʻrishni istaysizmi?
14 Demak, tilingizni yomon soʻzlardan tiying,

Og‘zingizni yolg‘on gaplardan asrang.
15 Yomonlikdan qayting, yaxshilik qiling,
Tinchlik istang, ha, tinchlik payida bo‘ling.

16 Egamiz solihlarni kuzatib turadi,
Ularning nolasini Egamiz eshitadi.
17 Badkirdorlardan esa yuz o‘giradi,
Ularning xotirasini yer yuzidan o‘chiradi.
18 Taqvodorlar yolvoradi, Egamiz eshitadi,
Barcha balolardan ularni Egamiz qutqaradi.
19 Ko‘ngli cho‘kkanlarga Egamiz yaqindir,
Ruhan ezilganlarni U qutqaradi.

20 Solihlarning qayg‘ulari ko‘p bo‘lsa,
Hamma qayg‘ulardan Egamiz xalos qilar.
21 Ularning o‘zini Egamiz saqlaydi,
Bironta ham suyagi sindirilmaydi.
22 Fosiqqa o‘z yovuzligi o‘lim keltiradi,
Solihdan nafratlangan mahkum bo‘ladi.
23 Egamiz O‘z qullarining hayotini qutqaradi,
Egamizda panoh topuvchilar mahkum bo‘lmaydi.

34–SANO

Dovud sanosi.

1 Ey Egam, menga qarshi chiqqanlarga O‘zing qarshi
bo‘l.
Menga hujum qilganlar bilan O‘zing jang qil.
2 Qalqonu sovutingni ol,
Qani, menga yordamga kel.
3 Meni ta’qib qilganlarga qarshi
Nayzayu boltangni olgin.
“Senga najot beraman”, deb
O‘zing menga va’da bergin.

4 Mening jonimga qasd qilganlar
Sharmandayu sharmisor bo‘lsin!
Menga qarshi fitna qilayotganlar
Uyatga qolib, orqaga qaytsin!
5 Ey Egam, Sening farishtang ularni quvsin.
Ha, ular xuddi shamolda uchgan somonday bo‘lsin.
6 Qorong‘i, sirpanchiq bo‘lsin ularning yo‘li,
Ey Egam, Sening farishtang ularni quvsin.

7 Sababsiz menga tuzoq qo‘ydilar,
Meni tutib olib o‘ldirmoq uchun

Sababsiz menga chuqur qazidilar.
8 To‘satdan ularning boshiga halokat kelsin,
Qo‘ygan tuzog‘iga o‘zlari o‘ralib qolsin,
Qazigan chuqurga o‘zlari yiqilib, bitsin.

9 Shunda, ey Egam, Sen tufayli shod bo‘laman,
Najot berganing uchun quvonaman.
10 Butun vujudim xitob qiladi:
“Senga o‘xshashi yo‘q, ey Egam,
Bechorani zo‘ravondan qutqarasan,
Faqirni talonchidan qutqarasan.”

11 Yovuz niyatli guvohlar paydo bo‘ladi,
Bilmaydigan narsalarimni mendan so‘raydi.
12 Ular yaxshiligimga yomonlik qaytaradi,
O‘zimni tamom yolg‘iz his qilaman.
13 Ular xasta bo‘lganlarida esa
Men qanor kiyib, ro‘za tutib, qayg‘u chekardim*.
Boshimni quyi solib, ibodat qilardim*.
14 Do‘stim, birodarim, deya tashvish tortardim,
Tuqqan onam uchun aza tutganday,
Qayg‘udan boshimni egib yurardim.

15 Qoqilganimda esa ular shod bo‘ldilar,
Menga qarshi yig‘ilishib keldilar,
Bexabar ekanman, ular kallakesar ekan,
To‘xtovsiz menga bo‘hton qildilar.
16 Shakkoklarday ayovsiz masxara qildilar,
Menga qarab tishlarini g‘ijirlatdilar.

17 Ey Egam, qachongacha qarab turasan?
Qutqargin meni ularning hujumidan,
Xalos qilgin jonimni o‘sha sherlardan!
18 Buyuk jamoa ichra Senga shukur aytaman,
Xalq yig‘inlarida Senga hamdlar o‘qiyman.

19 Asossiz menga dushmanlik qilganlar
Ustimdan kulmasinlar,
Mendan sababsiz nafrat etganlar
Ko‘zlarini o‘ynatmasinlar.
20 Tinchlik so‘zini og‘izga olmas ular,
Ammo yurtda tinch yashayotganlar ustidan
Yolg‘on so‘zlarni o‘ylab toparlar.
21 Menga qarshi shang‘illab aytarlar ular:
“Aha, ko‘zlarimiz bilan ko‘rdik qilmishlarini.”

22 O‘zing ko‘rgansan, ey Egam, sukut saqlama!
Ey Rabbiy, mendan hech uzoqlashma!
23 Qani, bo‘l, himoya qilgin meni,
Men uchun jang qilgin, ey Xudoyim, Rabbim!
24 Sen odilsan, ey Egam Xudo,
Shu bois meni oqlagin.
Dushmanlarim aslo ustimdan kulmasin.
25 Ular o‘zlariga o‘zlari:
“Aha, istaganimiz bo‘ldi–ku!” deb aytmasin.
“Uni yutib yubordik–ku”, demasin.

26 Kulfatlarimdan zavqlanganlarning hammasi
Sharmandayu sharmisor bo‘lsin.
Mendan o‘zlarini yuqori qo‘yganlar
Sharmandalik, badnomlikka o‘ralsin.

27 Men haq bo‘lib chiqishimni istaganlar
Xursand bo‘lsin, sevinch ila kuylasin.
Har doim aytaversin ular:
“Qulining saodatidan huzurlangan
Egamiz tobora yuksalaversin.”
28 Odilliging haqidagi so‘zlaru madhing
Kun bo‘yi tilimdan tushmaydi.

35–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Egamizning quli Dovud sanosi.*

2 Fosiqlarning gunohkorligi haqida
Yuragimda bir bashorat bor:
Gunohkor inson Xudodan qo‘rqmaydi.
3 O‘zining nazdida u osmonda yuradi,
Xudo gunohimni ko‘rmaydi,
Hukm qilmaydi, deb aytadi.
4 Og‘zidan manfur, yolg‘on so‘zlar chiqadi,
Donolikdan, yaxshi ishlar qilishdan u bosh tortadi.
5 Hatto yotganda ham fosiqlikni o‘ylaydi,
Gunohga o‘zini bag‘ishlaydi,
Fosiqlikdan aslo yuz o‘girmaydi.

6 Ey Egam, sodiq sevging falaklarga yetgaydir,
Ey Egam, sadoqating samolarga cho‘zilgaydir.
7 Odilliging buyuk tog‘larga o‘xshaydi,
Adolating tubsiz dengizga o‘xshaydi,
Ey Egam, insonu jonivorlarni Sen saqlagaysan.

8 Sodiq sevging, ey Xudo, naqadar bebahodir!

Qanotlaring soyasida insonlar panoh topadi.
9 Ular uyingdagi ne’matlardan yeb to‘yadi,
Lazzat to‘la daryoingdan ularga ichirasan.
10 Hayotning bulog‘i Sendadir,
Ziyo olarmiz Sening nuringdan.

11 Seni bilganlarga sodiq sevgingni ko‘rsat,
Yuragi soflarga O‘zing najot bergin.
12 Takabburning oyog‘i meni ezmasin,
Fosiqning qo‘llari meni haydamasin.
13 Ana, badkirdorlar ag‘anab yotibdi,
Qaddini ko‘tara olmay, yerga qapishib yotibdi.

36–SANO

Dovud sanosi.

1 Fosiqlarga g‘ayirlik qilmagin,
Badkirdorlarga hasad qilmagin.
2 Ular maysaday tezda qurib qoladi,
Yam–yashil o‘tday tezda so‘lib qoladi.

3 Egamizga umid bog‘lab, yaxshilik qilgin,
Shu yurtda yashab, halovat topgin.
4 Egamizni o‘zingning shodliging deb bil,
Ko‘nglingdagi orzularingga U yetkazadi.

5 Yo‘llaringni topshirgin Egamizga,
Ishon Unga, U madad beradi.
6 Solihligingni U tong kabi porlatadi,
Haqligingni kunduzgi quyosh kabi qiladi.

7 Sabrli bo‘l, muntazir bo‘l Egamizga,
G‘ayirlik qilmagin yo‘llarini topganlarga,
Fosiq niyatlarin amalga oshirganlarga.

8 G‘azabdan o‘zingni tiy, qahrdan qaytgin,
Ich–etingni yema, bu faqatgina zararga olib boradi.
9 Yovuzlar yo‘q qilib tashlanadi,
Egamizdan umidvorlar yurtga egalik qiladi.

10 Tez orada fosiqlarning kuni bitadi,
Sen har qancha qidirmagin,
Ularni bu yerdan topa olmaysan.
11 Beozorlar esa yurtga egalik qiladi,
Mo‘l baxt–saodatdan bahramand bo‘ladi.

12 Fosiq solihlarga qarshi fitna qiladi,

Ularga qarshi tishlarini g‘ijirlatadi.
13 Rabbiy fosiqlarni masxara qiladi,
Ularning kuni bitayotir, buni Rabbiy biladi.

14 Fosiq qilichini sug‘urib, kamonini tortadi,
Bechora, mazlumni yiqitishga shaylanadi,
Solihlarni o‘ldirmoq istaydi.
15 Ammo qilichlari o‘zlarining boshini yeydi,
Kamonlari ham parcha–parcha bo‘lib ketadi.

16 Solihning qo‘lidagi oz narsa afzal,
Jamiki fosiqning boyligidan ko‘ra.
17 Fosiqning kuchi qirqilib ketadi,
Solihni esa Egamiz qo‘llab–quvvatlaydi.

18 Aybsizlarning ehtiyoji Egamiz e’tiborida,
Ularning mulki to abad davom etadi.
19 Qaro kunlarda ham ular zavol topmaydi,
Qahatchilik kunlarda ham farovon yashaydi.
20 Fosiqlar esa albatta halok bo‘ladi,
Egamiz g‘animlari qirdagi gullarday quriydi,
Ular tutun kabi tarqalib, yo‘q bo‘lib ketadi.

21 Fosiq qarz oladi–yu, qaytarib bermaydi,
Solih esa himmat ila in’om qiladi.
22 Egamiz baraka bergan insonlar yurtni egallaydi,
Egamiz la’natlagan odamlar esa yo‘q bo‘lib ketadi.

23 Egamiz insonning yo‘lidan mamnun bo‘lsa,
Uning qadamlarini sobit qiladi.
24 Hatto qoqilsa ham yiqilib tushmaydi,
Egamiz madad berib, qo‘lidan ushlaydi.

25 Men ham yosh edim, endi keksaydim,
Solihlarning tark etilganini,
Ularning zurriyoti non tilaganini ko‘rmadim.
26 Ular doim himmat ila qarz beradi,
Farzandlari ham baraka topadi.

27 Fosiqlikni tashla, yaxshilik qilgin,
Toki yurtda to abad maskan qilgin.
28 Zotan, Egamiz yaxshi ko‘radi adolatni,
Tark etmaydi taqvodorlarni,
Ularni to abad himoya qiladi,
Fosiqlar naslini qirib tashlaydi.
29 Solih yurtga egalik qiladi,

Bu yurtda to abad istiqomat qiladi.

30 Solihning ogʻzi donolikdan soʻzlaydi,
Uning tili adolatni soʻylaydi.
31 Yuragida Xudosining qonuni joy olgan,
Shuning uchun qadamida adashmaydi.

32 Fosiq solihni doim kuzatadi,
Uni oʻldirmoqni moʻljallab yuradi.
33 Egamiz solihni fosiqning ixtiyoriga topshirmaydi,
Hukmga olib kelinganda, solih mahkum boʻlmaydi.

34 Egamizdan umid qil, Uning yoʻllarini tutgin,
U seni yuksaltiradi, bu yurtni egallaysan,
Fosiqning qirilib ketishini sen koʻrasan.

35 Koʻrganman fosiq, zolim odamning
Oʻz yurtida yam–yashil daraxtday unganini.
36 Koʻp oʻtmay u oʻtib ketdi, yoʻq boʻldi,
Qancha qidirsam ham, topa olmadim.

37 Aybsizga e’tibor ber, sofdilni kuzat,
Tinchlikparvarning istiqboli yorqin.
38 Gunohkorlarning hammasi qirilib bitadi,
Fosiqning kelajagi barham topadi.

39 Solih kishi Egamiz tufayli najot topgaydir,
Kulfat chogʻi Egamiz solihning qal’asidir.
40 Egamizdan panoh topgani uchun
Solihga Egamiz madad beradi, uni qutqaradi,
Fosiqdan omon saqlaydi, unga najot beradi.

37–SANO

1 *Dovud sanosi. Egamizdan madad soʻrab aytgan iltijosi.*

2 Ey Egam! Gʻazab bilan menga tanbeh bermagin,
Qahring sochib, menga jazo bermagin.
3 Oʻqlaring menga sanchildi,
Qoʻllaring ustimga bosib tushdi.

4 Butun tanam xastadir gʻazabingdan,
Sogʻligim yoʻqolgan gunohlarim dastidan.
5 Ayblarim meni juda ham ezadi,
Ular juda ogʻir yukka oʻxshaydi.

6 Aqlsizligim* dastidan

Yaralarim sasib, yiringlab oqyapti.
7 Juda egilib, bukchayib qoldim,
Kun boʻyi gʻamgin yuraman.
8 Ichim isitmadan otash boʻlib yonmoqda,
Tanamda bironta sogʻ joy yoʻq.
9 Sillam qurib, tamom ezildim,
Yurakdagi alamdan nola qilaman.

10 Yuragim tubidagi istaklarim
Ey Rabbiy, Oʻzingga ravshan,
Ohu nolam Sendan yashirin emas.
11 Yuragim titraydi, quvvatim ketdi,
Koʻzlarimning nuri adoyi tamom boʻldi.
12 Doʻst–yoronlarim dardim tufayli oldimdan
qochadi,
Tugʻishganlarim aslo yonimga kelmaydi.

13 Jonimga qasd qilganlar menga tuzoq qoʻyadi,
Menga yomonlik istaganlar kulfatdan soʻz ochadi,
Kun boʻyi yolgʻon soʻylab, fitna qiladi.

14 Men esa karga oʻxshayman, eshitmayman,
Soqovga oʻxshayman, gapira olmayman.
15 Chindan ham men soqovga oʻxshayman,
Tili qotib qolgan odamdayman.

16 Ey Egam, umidim yolgʻiz Sensan,
Ey Rabbim Xudo, javob beradigan Sensan.
17 Ey Egam: “Holimni koʻrib, dushmanlarim
shodlanmasin,
Oyoqlarim qoqilganda, oʻzlarini katta tutmasin”,
deya
Senga ibodat qildim.

18 Oʻzim ham yiqilay deb turibman,
Tinmay azob chekayotirman.
19 Qilgan egriliklarim uchun tavba qilaman,
Gunohga qoʻl urganimdan pushaymonman.
20 Ashaddiy dushmanlarim koʻpdir,
Sababsiz mendan nafrat etuvchilar son–sanoqsiz.
21 Ular yaxshiligimga yomonlik ila javob beradi,
Ezgu ishlarim uchun meni igʻvo qiladi.

22 Ey Egam, meni aslo tark etmagin,
Ey Xudoyim, mendan uzoq ketmagin.
23 Menga yordam bergani shoshilgin,

Ey mening najotkorim — Rabbiy!

38–SANO

[1] *Ijrochilar rahbari Yodutunga*. Dovud sanosi.*

[2] O‘zimga o‘zim shunday deyman:
“Yurar yo‘llarimni kuzatib boray,
Gunoh so‘zdan tilimni tiyib yuray,
Fosiqlar hamon o‘rab turarkan meni,
Qulf urib yopib olay og‘zimni.”
[3] Jim turdim, sukut saqladim,
So‘zlashdan bo‘yin tovladim,
Oshib boraverdi dardim.
[4] Qizib ketaverdi ichim,
O‘ylaganim sari o‘rtandi ko‘nglim,
Oxiri tilimni tiya olmay yolvordim:

[5] “Ey Egam, umrim nihoyasini ayon qilgin,
Qancha kunim qolganini ayon qilgin,
Umrim qancha qisqaligini bilayin.
[6] Yelday o‘tib ketguvchi umr bergansan,
Sening nazaringda umrim bir lahzadir,
Har kimning umri bir nafasdir.
[7] Har kimning umri soyaday o‘tib ketar,
Insonning harakati behuda bo‘lar,
Boylik yig‘ar, lekin bilmas
Kim boylikka egalik qilar.

[8] Kimdan men umid qilay endi, yo Rabbiy?
Sendadir mening barcha umidim.
[9] Xalos qilgin meni gunohlarimdan,
Kulmasin ahmoqlar mening ustimdan.
[10] Sukut saqlayman, og‘zimni ochmayman,
Axir, Sen O‘zing meni shu ahvolga solding.
[11] Mendan ofatlaringni uzoq qilgin,
Sening zarbalaringdan o‘lay, dedim.

[12] Gunohlari uchun insonni jazolab,
Unga tanbeh berasan.
Kuya yeganday qadrli narsalarini yo‘q qilasan.
Shubhasiz, inson bir nafasda o‘tib ketadi.

[13] Ey Egam, ibodatimni eshitgin,
Nolayu faryodimga quloq solgin.
Ko‘z yoshlarimga befarq bo‘lmagin.
Axir, men Sening o‘tkinchi mehmoningman,

Otalarim kabi musofirman.
14 Qahrli nigohingni mendan o‘girgin,
Toki yana xursand bo‘layin
Bu olamdan o‘tib yo‘q bo‘lmasimdan oldin.”

39–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Dovud sanosi.*

2 Men Egamizga umid bog‘ladim,
U menga yuz burdi, faryodimni eshitdi.
3 Meni balchiq chuqurdan,
Botqoqlikdan chiqarib oldi.
Eson–omon meni qattiq yerga o‘tqazdi,
Qadamlarimni dadil qildi.
4 U og‘zimga yangi bir qo‘shiq soldi,
Bu qo‘shiq Xudoyimizga madhiyadir.
Ko‘plar Uning ishlarini ko‘rib, qo‘rqadi,
Egamizga umid bog‘laydi.
5 Baxtlidir Egamizga umid bog‘laganlar,
Kiborlarga suyanmaganlar,
Butparastlardan yordam kutmaganlar.

6 Ko‘p mo‘jizalar ko‘rsatding, ey Egam Xudo,
Bizga qaratilgan ko‘p niyatlaringni bajarding.
Biror zot Senga teng kela olmas,
Og‘iz ochib, mo‘jizalaring haqida aytsam,
Naqadar ko‘pligini sanay olmasdim.

7 Sen qurbonligu nazrni istamading,
Kuydiriladigan qurbonlik hamda
Gunoh qurbonligini* talab qilmading,
Itoat qilishim uchun Sen quloqlarimni ochding*.
8 Shunda dedimki: “Mana, men keldim.
Muqaddas bitiklarda men haqimda yozilgan*.
9 Sening xohishingni ado etishdan zavq olaman,
Ey Xudoyim, Sening qonuning yuragim to‘ridadir.”

10 Ulug‘ jamoang ichra
Najoting xushxabarini e’lon qilganman.
Ha, ey Egam, O‘zing bilasan,
Og‘zimga bir nafas ham dam bermaganman.
11 Qutqarganingni yuragimda yashirmadim,
Sodiqliging, najotingdan har kimga so‘yladim,
Sevging, sadoqatingni buyuk jamoangdan sir
tutmadim.

12 Ey Egam, mendan shafqatingni darig‘ tutmagin,
Sening sevging, sadoqating meni to abad saqlasin.
13 Behisob ofatlar atrofimni o‘radi,
Gunohlarim o‘zimning boshimga yetdi,
Endi ko‘zlarim ko‘ra olmas,
Gunohlarim boshimdagi sochimdan ko‘pdir,
Endi jasoratim tamoman so‘ndi.

14 Ey Egam, iltimos, menga najot ber,
Kelgin tezda, ey Egam, menga madad ber.
15 Jonimga qasd qilgan hammalar
Sharmandayu sharmisor bo‘lsin!
Halokatimni istaganlar
Uyatga qolib, orqaga qaytsin!
16 “Holing qalay endi?!” deb meni masxaralaganlar
Sharmanda bo‘lganidan vahimaga tushsin.

17 Senga yuz burganlarning hammasi
Sen tufayli sevinch, shodlikka to‘lsin.
Sening najotingni sevganlar:
“Egamiz yuksalaversin”, deb doim aytsin.
18 Men esa g‘arib, bechoraman,
Ey Rabbiy, men haqimda o‘ylagin,
Madadkorim, najotkorim O‘zingsan,
Kechikmagin, ey Xudoyim!

40–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Dovud sanosi.*

2 Baxtlidir bechorani o‘ylaydiganlar,
Kulfatda qolganlarida Egamiz ularni qutqaradi.
3 Egamiz ularni himoya qiladi, hayotini asraydi,
Ular yurtdagi baxtlilardan hisoblanadi,
Egamiz ularni dushmanlari ixtiyoriga topshirmaydi.
4 To‘shakka mixlanib qolsa,
Egamiz parvarish qiladi,
Xastaligiga Egamiz shifo beradi.

5 Shunday iltijo qildim Senga:
“Ey Egam, shafqat qil menga,
Gunoh qildim Senga, shifo bergin.”
6 Dushmanlarim yovuz niyat ila shunday deydi:
“Qachon o‘lar ekan u, nomi ham qachon o‘charkan?”
7 Ular meni ko‘rgani kelganda,
Yolg‘on–yashiq gaplarni gapiradi.
Yuraklarida esa fisqu fasod tugib,

Tashqariga chiqadi–da,
Hamma joyda yoyib yuradi.
8 Mendan nafratlanganlarning hammasi
Menga zarar berishni reja qilishadi,
Birlashib, men haqimda pichir–pichir qilishadi:
9 “Og‘ir xastalikka chalingan u,
To‘shagidan qaytib tura olmaydi.”
10 Hatto nonimni yegan yaqin, ishongan do‘stim,
Menga qarshi bosh ko‘targan.

11 Sen esa, ey Egam, menga rahm qil,
Meni oyoqqa turg‘az.
Qilmishlariga yarasha dushmanlarimga qaytaray.
12 Dushmanlarim ustimdan g‘olib kelmasa,
Mendan mamnun bo‘lganingni bilaman.
13 To‘g‘riligim uchun meni saqlaysan,
Huzuringda to abad meni o‘tqazasan.

14 Olqishlar bo‘lsin abadulabad
Isroil xalqining Xudosi — Egamizga!

Omin! Omin!

41–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Ko‘rax naslining* qasidasi*.*

2 Kiyik irmoq suvlarini tusaganday,
Ey Xudo, jonim Seni shunday tusaydi!

3 Jonim tashna Xudoga, barhayot Xudoga,
Qachon borib, Uning huzurida hozir bo‘laman?
4 Tuz totmay kechayu kunduz ko‘z yosh to‘kaman,
“Qani Xudoying?” deya masxara qilar odamlar doim.

5 Shodlik hayqiriqlariyu hamdu sanolar ostida
Jamoa bilan birga Xudoning uyiga borardim.
Bayram nishonlagani olomon bilan borardim.
Shularni eslab, yuragim pora–pora bo‘lmoqda.
6 Nega tushkunlikka tushasan, ey jonim?
Nega behalovat bo‘lasan ichimda?
Xudoga umid bog‘la! Shukur etaman
Yana Unga — najotkorim, 7 Xudoyimga.

Tushkunlikka tushganman.
Shu bois, ey Xudo, Seni Iordan diyoridan,
Xermon* tizmasidan, Mizor tog‘idan* turib eslayman.

8 O‘kirayotgan dengizlarday,
Guvullayotgan sharsharalarday
Sen yuborgan qayg‘u to‘lqinlari
O‘tgandilar ustimdan bosib.

9 Kunduzi Egam sodiq sevgisini ko‘rsatadi,
Tunlari U menga qo‘shiq beradi,
Menga umr bergan Xudoga ibodat qilaman.

10 Xudoga, suyangan Qoyamga aytaman:
“Nega meni unutib qo‘yding Sen?!
Ne uchun g‘amga botib yurmog‘im kerak
Dushmanlarim siquvi sababidan?!”
11 Dushmanlarim haqoratidan suyaklarim zirqiraydi,
Ular muttasil mendan: “Qani Xudoying?!” deya
so‘raydi.

12 Nega tushkunlikka tushasan, ey jonim?
Nega behalovat bo‘lasan ichimda?
Xudoga umid bog‘la! Shukur etaman
Yana Unga — najotkorim, Xudoyimga.

42–SANO

1 Ey Xudo, oqla meni!
Shakkok xalqqa qarshi da’voim bor.
O‘zing meni himoya qil.
Meni bu yolg‘onchi, adolatsizlardan qutqar.
2 Axir, mening panohim — Xudo Sensan,
Nega Sen tark etding meni?!
Ne uchun g‘amga botib yurmog‘im kerak
Dushmanlarimning siquvi dastidan?!

3 Yo‘llagin nuringni, haqiqatingni,
Bular menga yo‘l ko‘rsatib tursin,
Muqaddas tog‘ingga* meni olib borsin,
Sening makoningga meni olib borsin.
4 Shunda boraman, ey Xudo, Sening qurbongohingga.
Buyuk shodligimsan, sevinchimsan Sen,
Lira chalib, hamdu sano aytaman Senga,
Ey Xudo, mening Xudoyim!

5 Nega tushkunlikka tushasan, ey jonim?
Nega behalovat bo‘lasan ichimda?
Xudoga umid bog‘la! Shukur etaman
Yana Unga — najotkorim, Xudoyimga.

43–SANO

[1] *Ijrochilar rahbariga. Koʻrax naslining* qasidasi*.*

[2] Ey Xudo, oʻz quloqlarimiz ila eshitganmiz.
Qadimda, ota–bobolarimiz davrida
Qilgan ishlaringni ular bizga aytgan edi.
[3] Oʻz qoʻling ila quvding begona xalqlarni,
Ularning yurtiga oʻtqazding otalarimizni.
Kulfatga solding begona xalqlarni,
Ozod qilding Sen otalarimizni*.
[4] Ular yurtni qilich ila olmadilar,
Oʻz qoʻllari bilan gʻalabaga erishmadilar.
Ular Sening oʻng qoʻling, qudrating,
Sening yuz nuring ila gʻolib boʻldilar.
Zero, Sen ulardan mamnun boʻlganding.

[5] Sen Shohimsan, Xudoyimsan,
Amr ber, Yoqub nasli gʻolib boʻlsin.
[6] Sen tufayli dushmanlarimizni yiqitamiz,
Noming ila gʻanimlarimizni ezamiz.
[7] Ishonib qolmasman men oʻz yoyimga,
Qilichim gʻalaba keltirmas menga.
[8] Gʻanimlarimiz ustidan bizni gʻolib qilding,
Bizdan nafratlanganlarni sharmanda qilding.
[9] Ey Xudo, kun boʻyi Sen tufayli maqtandik,
To abad Senga shukronalar aytamiz.

[10] Endi esa bizni rad qilib, sharmanda qilding,
Lashkarlarimizni boshlab bormayapsan.
[11] Bizni dushmanlarimiz oldida chekintirding,
Gʻanimlarimiz bizni talon–taroj qildi.
[12] Bizni qoʻylar kabi yemishga berding,
Xalqlar orasiga bizni yoyib yubording.
[13] Xalqingni qora chaqaga sotib yubording,
Ularni sotishdan hech naf koʻrmading.

[14] Qoʻshni xalqlar bizni masxara qiladi,
Sen yoʻl qoʻyib berding.
Atrofimizdagilar bizni haqoratlaydi,
Kulishlariga imkon berding.
[15] Xalqlar orasida kulgi qilding bizni,
Xalqlar bizni masxaralab, chayqaydi boshini.
[16] Har doim xijolat boʻlib yuraman,
Sharmandalik yuzimni qoplagan.
[17] Eshitganimiz masxarayu haqorat!

Koʻrganimiz qasoskor dushman!

18 Garchi Seni unutmagan boʻlsak–da,
Garchi ahdingga xiyonat qilmasak–da,
Bu koʻrgiliklar boshimizga tushdi.
19 Biz Seni hech qachon tark etmadik,
Sening yoʻllaringdan hech qachon toymadik.
20 Ammo chiyaboʻrilar makoniga bizni tashlading,
Zimziyo zulmatga bizni uloqtirding.

21 Ey Xudoyimiz, axir, Sening nomingni unutsak,
Qoʻllarimizni begona xudolarga ochsak,
22 Ey Xudo, Sen buni bilmasmiding?!
Axir, Sen yurakdagi sirlarni bilasan–ku!
23 Sen tufayli har kuni oʻlimga duch kelamiz,
Boʻgʻizlanadigan qoʻyday boʻlib qolganmiz.

24 Tursang–chi, nega uxlayotgandaysan, yo Rabbiy?!
Qani, boʻl, bizni to abad rad etmagin.
25 Nega bizdan yuz oʻgirasan?!
Boshimizga tushgan kulfatu zulmni unutasan?!
26 Biz agʻnatilganmiz tuproqqa,
Tanamiz yopishib qolgandir yerga.
27 Qani, kel, bizga madad ber,
Sodiq sevging haqi bizni qutqar.

44–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. “Nilufar” kuyiga aytiladigan toʻy qoʻshigʻi. Koʻrax naslining* qasidasi*.*

2 Shohimga she’rlarimni bagʻishlayman,
Yuragimdan goʻzal soʻzlar toʻkiladi,
Tilim mohir kotib qalamiga oʻxshaydi.

3 Ey shohim! Insonlar orasida juda chiroylisan.
Xudo senga to abad baraka bergani uchun
Lablaringdan latif soʻzlar yogʻiladi.
4 Ey qudratli shoh, belingga bogʻla qilichingni,
Hashamatu ulugʻvorliging bilan zohir boʻlgin.

5 Ulugʻvorlik bilan olgʻa bos!
Haqiqat, kamtarlik, adolat uchun gʻalaba qil!
Oʻng qoʻling qoʻrqinchli ishlar koʻrsatsin.
6 Gʻanimlaringning yuragini
Oʻtkir oʻqlaring teshib oʻtadi.
Xalqlar oyogʻing ostiga yiqiladi.

7 Xudo bergan taxting* abadiydir,
Adolat hassasi shohliging hassasidir.
8 Sen solihlikni sevasan, qabihlikdan nafratlanasan.
Shu bois Xudo seni do‘stlaringdan ustun qildi,
Ha, Xudoying shodlik moyini senga surtdi.
9 Libosingdan mirra*,
Aloe va dolchinning xushbo‘y hidlari ufurar.
Fil suyagi bilan bezatilgan saroylarda
Cholg‘u navolari seni shod qilar.
10 Shoh qizlari izzatli xonimlaring orasidadir,
Ofir* oltiniga bezangan malika o‘ng qo‘lingda o‘tirar.

11 Tingla, ey qiz, quloq solib, o‘ylagin,
Xalqing, otang xonadonin unutgin.
12 Jamolingga shoh maftun bo‘lgandir,
Ta’zim qil unga, u xo‘jayiningdir.
13 Tir* xalqi hadyalar olib keladi,
Boylar sendan marhamat istaydi.
14 Saroyda malika naqadar go‘zal!
Liboslari oltin bilan bezatilgan.
15 Naqshli libosida uni shoh huzuriga olib kelishadi,
Ortidan qizlar, uning dugonalari ergashib keladi.
16 Ular shod–xurramlik ichra keladi,
Shohning saroyiga ular kirib keladi.

17 Ey shohim, o‘g‘illaring olgaylar otalaring o‘rnini,
Butun yurtda shahzodalar qilgaysan sen ularni.
18 Qo‘shig‘im tufayli noming nasllar osha yashar,
Shu bois xalqlar seni to abad madh etarlar.

45–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. “Qizlar” kuyiga aytiladigan*
Ko‘rax naslining qo‘shig‘i.*

2 Xudo bizning panohimiz, qudratimizdir,
Kulfatda qolganimizda doim madadkorimizdir.
3 Shu bois biz qo‘rqmaymiz hech ham
Yer ostin–ustin bo‘lib ketsa ham,
Dengiz bag‘riga tog‘lar qulab tushsa ham.
4 Dengizlar o‘kirib, toshib ketsa ham,
Shiddatli to‘lqinlar tog‘larni titratsa ham
Biz qo‘rqmaymiz hech ham.

5 Bir daryo bor, uning suvlari
Shodlik olib kelar Xudo shahriga*,

Xudoyi Taoloning muqaddas makoniga.
6 Shaharda Xudo turgani uchun
Shahar qulamas aslo,
Tong otganda, Xudo yordamga keladi.
7 Xalqlar alg‘ov–dalg‘ov bo‘ladi,
Shohliklar qulaydi.
Xudoning ovozi guldiraydi, yer erib ketadi.

8 Sarvari Olam biz bilandir,
Yoqubning Xudosi qal’amizdir.

9 Keling, Egamizning ishlarini ko‘ring,
Yer yuziga keltirgan kulfatni ko‘ring.
10 Butun olamda U jangni to‘xtatadi,
Yoyni parchalaydi, nayzani sindiradi,
Qalqonlarni* olovda yoqib, shunday deydi:
11 “To‘xtang, biling, Men Xudoman,
Xalqlar orasida Men yuksalgayman,
Yer yuzida Men yuksalgayman.”

12 Sarvari Olam biz bilandir,
Yoqubning Xudosi qal’amizdir.

46–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Ko‘rax naslining* sanosi.*

2 Ey xalqlar! Hammangiz qarsak chaling,
Sevinch hayqiriqlari ila Xudoni kuylang!
3 Qo‘rqinchlidir Xudoyi Taolo — Egamiz,
Butun yer yuzida Udir ulug‘ Shohimiz.

4 Xalqlarni U bizga itoat ettirdi,
Elatlarni oyog‘imiz ostiga tashladi.
5 O‘zi suygan Yoqubning faxrli mulkini
Egamiz biz uchun yurt qilib tanladi.

6 Shodlik hayqiriqlari ostida Xudo taxtga chiqdi,
Karnay sadosi ostida Egamiz taxtiga o‘tirdi.
7 Hamdu sano kuylang Xudoga, madhlar kuylang!
Ha, Shohimizga madhlar kuylang! Hamdu sano
kuylang!
8 Butun yer yuzining shohidir Xudo,
Unga ajoyib hamdu sano kuylang!

9 Jamiki uluslarning shohidir Xudo,
Muqaddas taxtida o‘tiribdi Xudo!

10 Ibrohim Xudosining xalqi bilan birga
To‘planarlar xalqlarning hukmdorlari.
Zaminning shohlari* — Xudoniki,
G‘oyat baland yuksalgandir U.

47–SANO

1 *Ko‘rax naslining* sanosi. Qo‘shiq.*

2 Egamiz buyukdir!
Egamiz O‘z shahrida,
Ha, O‘zining muqaddas tog‘ida*
Madhiyalarga loyiqdir!
3 Xudoning muqaddas tog‘i yuksak va go‘zaldir,
Butun yer yuziga shodlik olib keladir!
Buyuk Shohning shahridagi,
Uning shimolidagi* Sion tog‘i!*
4 Xudo Quddusning qo‘rg‘oni ichida turadi,
Uning qal’asi bo‘lib, O‘zini namoyon etgan.

5 Shohlar to‘plandilar,
Birgalashib Sion tog‘iga qarshi yurdilar.
6 Uni ko‘rdilar–u, shoshib qoldilar,
Vahimaga tushib, qochib qoldilar.
7 Tug‘ayotgan xotin tortganday dard
O‘sha yerda ularni titroq bosdi.
8 Sharqdan shamol esib,
Tarshish* kemalarini parchalaganday,
Sen ularni qirib tashlading.

9 Xudo nima qilganini biz eshitdik.
Nima eshitgan bo‘lsak, endi o‘shani
Xudoyimiz, Sarvari Olamning shahrida ko‘rdik.
Bu shaharni Xudo to abad saqlar.

10 Ey Xudo, Ma’bading ichida
Sodiq sevging haqida o‘ylaymiz.
11 Ey Xudo, madhing ham dong‘ing kabi,
Yerning to‘rt tomoniga yoyilgan,
O‘ng qo‘ling adolat ila to‘lib–toshgan.
12 Sening hukmlaringdan
Sion tog‘i shod bo‘lsin,
Yahudo shaharlari sevinsin!

13 Ey Isroil xalqi,
Quddus* tevaragida yuring.
Atrofida aylanib,

Uning minoralarini sanab chiqing.
14 Sionning istehkomlariga e’tibor bering,
Uning qo‘rg‘onlariga qarang!
Bularni ko‘rib, kelgusi avlodlarga hikoya qiling:
15 “Xudo o‘sha istehkomlarga o‘xshaydi.
U to abad bizning Xudoyimizdir,
U to abad bizning yo‘lboshchimiz bo‘ladi.”

48–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Ko‘rax naslining* sanosi.*

2 Eshitinglar, ey xalqlar,
Quloq soling, olam ahli,
3 Ey insonlar, jamiki odamzod,
Boylaru faqirlar, quloq solingiz!
4 Og‘zimdan to‘kiladi dono so‘zlar,
Qalbimning mulohazalari ham idroklidir.
5 Qulog‘imni hikmatga buraman,
Ma’nosini lira bilan anglataman.

6 Nega qo‘rqishim kerak qaro kunlarda?!
Nega qo‘rqishim kerak ta’qib qiluvchilar
Qabih ishlari bilan meni o‘rab olganlarida?!
7 Ular mol–mulkiga ishonadilar,
Behisob boyliklari ila maqtanadilar.
8 Axir, hech kim hayotini* pul to‘lab qutqara olmas,
Yoki uning uchun Xudoga to‘lov berolmas.
9 Inson hayoti uchun to‘lov g‘oyat qimmatdir,
Hech qanday to‘lov yetarli bo‘lmas.
10 Yo‘qsa inson to abad yashardi,
Qabr yuzini aslo ko‘rmasdi.

11 Dononi qarang, ular ham o‘ladi,
Ahmoq, bema’ni birday halok bo‘ladi,
Ularning boyligi boshqalarga qoladi.
12 Yurtlarga o‘zlarining nomini berganda ham,
Mozor to abad uyi bo‘lib qoladi,
Maskani nasldan naslga o‘taveradi*.
13 Boyligiga qaramay inson to abad qolmas,
O‘ladigan jonzotga o‘xshaydi ular.

14 O‘zlariga ishonganlarning qismati shudir,
Ularning so‘zini ma’qullaganlarning taqdiri shudir:
15 Ular qo‘ylar kabi o‘liklar diyoriga haydaladilar,
O‘lim ularning cho‘poni bo‘ladi,
Tongda to‘g‘ri insonlar ularning ustidan hukmron

bo‘ladi,
Tanalari chirib ketadi,
O‘liklar diyori* ularning qasri bo‘ladi.
16 O‘liklar diyori hukmidan Xudo meni qutqaradi,
Shubhasiz, U meni O‘z yoniga oladi.

17 Birontasi boyib ketganda,
Uyining hashamati oshib ketganda,
Vahimaga tushma!
18 Olamdan o‘tganda, u o‘zi bilan hech narsa olib
ketmaydi,
Boyligi ham uning ortidan qabrga ergashib
bormaydi.
19 Hayotligida o‘zini baxtiyor hisoblaydi,
Oshib–toshib yashagani uchun
Ko‘plar unga hamdu sano aytadi.
20 U ham ota–bobolari yoniga ketadi,
Ular kabi yorug‘likni boshqa ko‘rmaydi.
21 Boyligi bo‘la turib aqlsiz bo‘lganlar
O‘ladigan jonzotga o‘xshaydilar.

49–SANO

Osif sanosi.*

1 Xudolar Xudosi — Egamiz so‘ylar,
Da’vat qilar yer yuziga
Sharqdan g‘arbga qadar.
2 Xudo O‘z nurini sochar Quddusdan* —
Go‘zallikda komil shahardan.

3 Xudoyimiz kelar, sukut saqlamas,
Uning oldida alanga yamlab yuborar,
Atrofida bo‘ron g‘azabdan quturar.
4 O‘z xalqini hukm etmoq uchun
Yeru osmonni guvoh qilib chaqirar:
5 “Yig‘ib keling Mening taqvodor xalqimni,
Qurbonlik orqali Men bilan ahd qilganlarni!”
6 Samolar e’lon qilar Xudoning odilligini,
Hakam Xudoning O‘zidir.

7 Xudo aytar: “Eshit, ey xalqim, Men so‘zlayman,
Ey Isroil, senga qarshi guvohlik beraman,
Men Xudoman, sening Xudoyingman.
8 Keltirgan qurbonliklaring doimo oldimda.
Kuydirilgan qurbonliklaringdan shikoyat
qilmayman.

9 Og‘ilingdagi buqangga muhtoj emasman,
Suruvingdagi echkingga ham zor emasman.
10 Menikidir o‘rmondagi jamiki hayvon,
Minglab qirlardagi molu qo‘ylar.
11 Menikidir jamiki tog‘dagi qushlar,
Menikidir daladagi barcha jonivorlar.
12 Och qolsam ham, sendan ovqat so‘ramasdim.
Axir, Menikidir olam, undagi hamma narsa.
13 Men buqa go‘shtini yeymanmi?!
Yoki echki qonini ichamanmi?!
14 Men, Xudoga shukrona qurbonligini qil,
Men, Xudoyi Taologa ontingni ado qil.
15 Og‘ir kunda Menga iltijo qilgin,
Senga najot beraman,
Sen esa Menga maqtov aytasan.”

16 Fosiqqa esa Xudo shunday deydi:
“Ne haqing bor qonunlarimni tilga olmoqqa?!
Ne haqing bor ahdimni og‘zingga olmoqqa?!
17 Nafrat ila qaraysan–ku yo‘l–yo‘riqlarimga,
Otib tashlaysan–ku kalomlarimni orqangga!
18 O‘g‘rini ko‘rganingda, do‘stlashasan u bilan,
Sherik bo‘lib olasan zinokorlar bilan.
19 Og‘zing yomon so‘zlar uchun doim tayyordir,
Tilingning to‘qigani faqat yolg‘ondir.
20 O‘tirib, birodaringga qarshi so‘ylaysan,
Tug‘ishganingga ham tuhmat qilasan.
21 Shu ishlarni qilganingda, sukut saqladim,
Meni ham o‘zingga o‘xshagan, deb o‘ylading.
Endi–chi, aybingni bo‘yningga qo‘yib,
Seni hukm qilaman.
22 Ey Meni unutganlar, bilib qo‘ying,
Yo‘qsa sizlarni parcha–parcha qilaman,
Bironta najot berguvchi topilmaydi.
23 Menga shukrona qurbonligi keltirganlar
Meni izzat qilgan bo‘ladi.
Men O‘z najotimni
To‘g‘ri yo‘ldan yurganlarga ko‘rsataman.”

50–SANO

1-2 *Ijrochilar rahbariga. Natan payg‘ambar kelib, Dovudning Botsheva bilan qilgan gunohini fosh etgandan keyin*, Dovudning aytgan sanosi.*

3 Rahm qilgin menga, ey Xudo,

Sodiq sevging, cheksiz shafqating ila
Itoatsizligimni olib tashlagin.
4 Yuvib tashla barcha ayblarimni,
Poklagin gunohlarimdan.
5 Ha, o‘zimning itoatsizligimni bilaman,
Gunohim turar ko‘z o‘ngimda mudom.
6 Senga, yolg‘iz Senga qarshi gunoh qilganman,
Sening oldingda qabihliklarga qo‘l urganman,
Shu bois hukm qilganingda Sen barhaqsan,
Aybimni fosh etganingda doimo to‘g‘ri bo‘lib
chiqasan.

7 Mana, gunohkor bo‘lib tug‘ilganman,
Onam qornidayoq gunohkor edim.
8 Biroq Sen samimiy, pok qalbni istaysan,
Asl donolikni O‘zing menga o‘rgatgin*.
9 Pokla meni issop o‘ti* ila, toza bo‘layin,
Yuvgin meni, qordan ham oq bo‘layin.
10 Yana eshitay shodlik, quvonch xabarin,
Sen ezgan suyaklarim yana quvonsin.
11 Gunohlarimdan chetga ol ko‘zlaringni,
Olib tashla ayblarimni.

12 Ey Xudo, menda toza yurak yaratgin,
Sodiq qalbni menga yana bir bor bergin.
13 Huzuringdan meni uloqtirib tashlama,
Muqaddas Ruhingni mendan olma.
14 Najoting shodligini menga qaytargin,
Itoat etishga menda istak uyg‘otgin.

15 Shunda itoatsizlarga Sening yo‘llaringni
o‘rgataman,
Gunohkorlar qaytib keladilar Senga.
16 Qon to‘kkanim uchun kechir meni, ey Xudo,
Najot berganingni sevinch ila kuylar tilim,
Ey najotkorim Xudo!

17 Lablarimni ochgin, ey Rabbiy,
Og‘zim Seni madh aylasin.
18 Qurbonlikni Sen xohlamaysan,
Qurbonlik kuydirganimda ham
Sen xush ko‘rmagan bo‘larding.
19 Senga ma’qul qurbonligim ezilgan ruhdir,
Ezilgan, tavba qilgan yurakni
Sen rad etmaysan, ey Xudo.

20 Lutfu karaming bilan Quddusni yashnatgin,
Sion shahri devorlarini qaytadan qurgin.
21 Shunda munosib qurbonliklar keltiriladi,
Kuydiriladigan qurbonliklar Seni mamnun qiladi,
Qurbongohingda buqalar nazr qilinadi.

51–SANO

1-2 *Ijrochilar rahbariga. Edomlik Doyeg Shoulning oldiga borib: “Dovud Oximalekning uyida”, deb xabar bergandan keyin*, Dovudning aytgan qasidasi*.*

3 Nechun maqtanasan yovuzliging ila, ey zo‘ravon?!
Xudoning sodiqligi doim men bilan, axir!
4 Balo keltiraman, deya reja qilasan,
O‘tkir ustaraga o‘xshaydi tiling.
Aldashga sen mohirsan.
5 Ezgulikdan ko‘ra, yovuzlikni yoqtirasan,
Haqiqatni so‘ylashdan ko‘ra, yolg‘onni afzal bilasan.
6 Halok qiladigan so‘zlarni yaxshi ko‘rasan,
Yolg‘onchi tilni sevasan.

7 Xudo esa seni to abad halok qiladi,
Seni ushlab, chodiringdan tortib chiqaradi,
Tiriklar yurtidan yo‘q qilib tashlaydi.

8 Solihlar buni ko‘rib, qo‘rqadi,
Fosiqning ustidan kuladi:
9 “Qarang, o‘sha odam Xudoni panohim deb bilmadi,
Mo‘l–ko‘l boyligiga umid bog‘ladi,
Boshqalarni qirish tufayli kuchaydi.”

10 Men–chi, o‘xshayman Xudoning uyidagi
Ko‘m–ko‘k zaytun daraxtiga.
Xudoning sodiq sevgisiga
Men to abad umidimni bog‘layman.

11 Ey Xudo, Sening hamma qilganlaring uchun
Senga to abad shukur aytaman.
Taqvodorlaringning huzurida
Senga umid bog‘layman,
Axir, O‘zing yaxshisan!

52–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. “Qayg‘u–alam” kuyiga aytiladigan Dovud qasidasi*.*

2 Ahmoqlar* o‘z ko‘nglida: “Xudo yo‘q”, deydilar.
Ular yaramaslardir, qilmishi jirkanch ishlardir,
Yaxshilik qiluvchi biron zot yo‘qdir.

3 “Idrokli biron zot bormikan?
Bormikan Menga yuz burgan?” deya
Insonga Xudo samodan boqar.
4 Hammasi yo‘ldan ozgan, birday buzilgan,
Yaxshilik qiluvchi bir kimsa yo‘qdir,
Hatto bironta ham yo‘q!

5 Ular idroksiz, badkirdor,
Xalqimni bir luqma nonday yeb yuboradi,
Hech qachon Xudoga sajda qilmaydi.
6 Ana, bosayotir ularni qattiq vahima,
Bunaqasini ilgari ko‘rmagan ular.
Xudo sochib tashlar g‘animlaringning suyaklarini.
Axir, Xudo rad etgan ularni!
Shu bois, ey Isroil, sen ularni sharmanda qilgansan.

7 Eh, Quddusdan* Isroilga najot kelsaydi!
Xudo O‘z xalqini yana farovonlikka erishtirsaydi,
Shunda Yoqub nasli shod bo‘lgay, Isroil sevingay!

53–SANO

1-2 *Ijrochilar rahbariga. Zifliklar Shoulning oldiga borib: “Dovud xalqimiz orasida yashirinib yuribdi”, deb xabar berganlaridan keyin*, Dovudning aytgan qasidasi*. Torli asboblar jo‘rligida aytiladi.*

3 Ey Xudo! Buyuk qudrating ila meni qutqargin!
Kuch–quvvating ila menga adolatli hukm chiqargin!
4 Ey Xudo, eshitgin iltijoimni,
Tinglagin aytganlarimni!
5 Begonalar qarshi qo‘zg‘aldi menga,
Zo‘ravonlar qasd qilmoqchi jonimga,
Ular Seni pisand qilmaydilar.

6 Ey Xudo, menga madad berasan,
Ey Rabbiy, mening jonimni asraysan.
7 Dushmanlarimning qabihliklari o‘z boshiga kelsin,
Sen sodiqsan, ularni qirib tashlagin!

8 Shod bo‘lib, Senga qurbonlik keltiraman,
O‘zing yaxshisan, ey Egam, Senga shukur aytaman!
9 Saqlading har qanday kulfatdan meni,
Ko‘zlarim ko‘rdi dushmanlarim mag‘lubiyatini.

54–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Torli asboblar jo‘rligida aytiladigan Dovud qasidasi*.*

2 Ibodatimga quloq sol, ey Xudo,
Iltijoimni e’tiborsiz qoldirma.
3-4 Eshit meni, javob ber,
Dushmanlarim dag‘dag‘asi, fosiqlarning siquvi
Boshimga g‘am–kulfat keltiradi.
Ular g‘azablanib, mendan nafratlanadi.
Eh, o‘ylarim qiynaydi meni,
G‘am–tashvishlar qattiq ezadi.

5 Yuragim hasratga to‘ladir,
O‘lim vahimasi meni bosib keladir.
6 Qo‘rquv, titroq menga kelmoqda,
Dahshat meni ezib bormoqda.
7 “Qaniydi kaptar kabi, qanotim bo‘lsa”, dedim,
“Uchib ketib, orom olgan bo‘lardim.
8 Haqiqatan, uzoqlarga uchib qutulardim,
Sahroda makon qilgan bo‘lardim.
9 Quturgan shamolu bo‘rondan qochib,
O‘zimga boshpana topgani shoshilgan bo‘lardim.”

10 Ey Rabbiy, dushmanlarimni chalg‘it,
Ularning gaplarini chalkashtir.
Shaharda zo‘ravonlik, janjalni ko‘rib turibman.
11 Fosiqlar kecha–kunduz shahar devori ustida
izg‘iydi,
Yovuzlik, vahima shahar ichida yuz bermoqda.
12 Shaharning o‘rtasida buzg‘unchilik,
Ko‘chalaridan zulm va hiyla arimaydi.

13 G‘animlarim meni haqorat qilganda edi,
Bunga bardoshim yetgan bo‘lardi.
Dushmanim o‘zini mendan yuqori qo‘yganda edi,
Undan yashiringan bo‘lardim.
14 Ammo u mening tengim–ku,
Yaqin do‘stim hamda hamrohim–ku.
15 U bilan dilkash do‘st edik,

Ey Xudo, Sening uyingdagi yig‘inda birga yurardik.
16 Uylari, yuraklari fosiqlikka to‘la bo‘lgani uchun
G‘animlarim o‘limga ro‘baro‘ bo‘lsin,
Tiriklayin o‘liklar diyoriga* tushsin.

17 Men iltijo qilaman Xudoga,
Najot beradi Egam menga.
18 Oqshom, sahar hamda kunduz
Dardu fig‘onlarimni aytaman.
Egam mening ovozimni eshitadi.
19 Garchi menga qarshilar ko‘p bo‘lsa ham,
Birorta ham zarar yetkazmay
Meni janglardan qutqaradi.
20 Azaldan taxtda o‘tirgan Xudo
Menga quloq tutib,
Dushmanlarimni mag‘lub qiladi.
Axir, ular o‘z yo‘lidan qaytmadilar,
Xudodan ular qo‘rqmadilar.

21 Hamrohim o‘z do‘stiga qarshi qo‘lini ko‘tardi,
Men bilan qilgan ahdiga u xiyonat qildi.
22 Uning og‘zidan bol tomadi,
Yuragi esa adovatga to‘la.
So‘zlari moydan ham yoqimli,
Aslida qindan chiqqan qilichdaydir.

23 Tashvishlaringni Egamizga topshirgin,
U senga tayanch bo‘ladi.
Egamiz hech qachon solihning yiqilishiga yo‘l
qo‘ymaydi.

24 Ey Xudo, fosiqlarni Sen
O‘liklar diyoriga uloqtirasan.
Qonxo‘r, xoin kimsalar aslo
Umrining yarmisini ham yashamaydi.
Men esa Senga umid bog‘layman.

55–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Filist xalqi Dovudni Gat shahrida tutib olgandan keyin*, uning aytgan qo‘shig‘i. “Uzoqdagi jim kabutar” kuyiga aytiladi.*

2 Shafqat qil menga, ey Xudo,
Odamlar meni ta’qib qilmoqda,
G‘animlarim kun bo‘yi meni ezmoqda.
3 Bo‘htonchilar kun bo‘yi meni ta’qib qiladi,

Ko‘plari menga hujum qiladi, ey Xudoyi Taolo!
4 Qo‘rqqanimda Senga umid bog‘layman.
5 Ey Xudo, kalomingni madh etaman,
Sendan umid qilaman, qo‘rqmayman,
Bandang menga ne qila oladi?!

6 G‘animlarim har doim gapimni buzib ko‘rsatadi,
Menga zarar yetkazmoq uchun fitnalar qiladi.
7 Yovuz niyatda ortimdan pisib keladi,
Har bir qadamimni o‘lchab yuradi,
Ular hayotimga chek qo‘yishni istaydi.
8 Jinoyatlari uchun ularni uloqtir*,
Ey Xudo, g‘azabing ila ularni yerga ur!

9 Sen qayg‘ularimni hisobga olgansan,
Ko‘z yoshlarimni idishingga solib yig‘ib qo‘ygin.
Axir, ularning har biri kitobingda yozilgan–ku!
10 Senga iltijo qilgan kunim
Dushmanlarim ortga chekinadi.
Ha, bilaman, Sen men tomonda.
11 Ey Xudo, kalomingni madh etaman,
Ha, Egam, Sening kalomingni men madh etaman.
12 Sendan umid qilaman, qo‘rqmayman,
Bandang menga ne qila oladi?!

13 Ey Xudo, Senga bergan ontimni bajarmog‘im shart,
Shukrona nazrlarimni Senga atayman.
14 Jonimni o‘limdan qutqarib qolding,
Oyog‘imni qoqilishdan saqlading.
Shu bois, ey Xudo, Sening oldingda,
Hayot nurida yuraman.

56–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Dovudning Shouldan qochib yurgan paytda g‘orda yashirinib qutulganidan keyin* aytgan qo‘shig‘i. “Xarob etma” kuyiga aytiladi.*

2 Ey Xudo, rahm qilgin menga, rahm qil,
Mening jonim Senda panoh topadi.
Halokatli ofatlar o‘tib ketguncha
Men qanotlaring soyasida panoh topaman.

3 Yolvoraman Xudoyi Taologa,
Men uchun qasos oluvchi Xudoga*.
4 Samodan najot yuborib, U meni qutqaradi,
Meni toptaydiganlarni sharmanda qiladi.

Xudo O‘z sevgiyu sadoqatini yuboradi.

5 Men odamxo‘r sherlar* orasida yotgandayman.
Ularning tishlari nayzayu o‘q kabidir,
Ularning tillari keskir qilichdaydir.

6 Ey Xudo, falakdan ham yuqorida yuksalaver!
Shuhrating butun zamin uzra yoyilsin.

7 Dushmanlarim oyoqlarimga tuzoq qo‘ygan,
Qayg‘u–kulfatdan ruhim cho‘kkan.
Ular so‘qmoqlarimda chuqur qazidi,
O‘zlari qazigan chuqurga o‘zlari quladi.

8 Ey Xudo, yuragim Senga sodiq,
Ha, yuragim Senga sodiqdir!
Seni kuylab, qo‘shiq aytaman.
9 Uyg‘ongin, ey jonim!
Uyg‘on, ey arfa, lira!
Tongni ham men uyg‘otaman!
10 Ey Rabbiy, xalqlar orasida Senga shukrona
aytaman,
Ellar orasida Senga hamdu sano kuylayman.
11 Sodiq sevging samolarday yuksakdir,
Sadoqating bulutlarga cho‘zilgandir.

12 Ey Xudo, falakdan ham yuqorida yuksalaver!
Shuhrating butun zamin uzra yoyilsin.

57–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. “Xarob etma” kuyiga aytiladigan Dovud qo‘shig‘i.*

2 Ey hukmdorlar! Nahot siz adolatli qaror
chiqarasiz?!
Nahot sizlar to‘g‘rilik ila xalqlarni hukm qilasiz?!
3 Yo‘q, axir, yuraklaringiz adolatsizlikka to‘la–ku!
Yer yuzida qo‘llaringiz zo‘ravonlikni taqsimlaydi–ku!
4 Fosiqlar onasining qornidayoq adashadi,
Yolg‘onchilar tug‘ilishdanoq yo‘ldan ozadi.
5 Ularning zahri ilonning zahriga o‘xshaydi.
Kar ilonday quloq solishni ular istamaydi.
6 Ilon o‘ynatuvchining kuyini ular eshitmaydi,
Uning mahorat bilan chalgan kuyiga beparvo.

7 Sindir ularning tishlarini, ey Xudo,

Sug‘urib ol sherlarning qoziq tishlarini, ey Egam!
8 Ular oqar suvday yo‘q bo‘lib ketsin,
Ularning o‘qlari nishonga tegmaydigan bo‘lsin.
9 Balchiqqa botib ketgan shilliq qurtday bo‘lsin,
Onasi qornidan o‘lik tug‘ilib,
Hech qachon quyosh ko‘rmagan chaqaloqday bo‘lsin.
10 Yonayotgan tikan qozonni tez qizdirganday
Fosiqni shunchalik tez supurib yo‘q qilgin.

11 Fosiqdan o‘ch olinganda, solih sevinadi,
Ularning qonida solih oyoqlarini yuvadi.
12 Odamlar aytar: “Shubhasiz, solihga mukofot
bordir,
Yer yuzida hukm qiluvchi Xudo albatta bordir.”

58–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Shoul Dovudni o‘ldirish uchun uning uyini kuzatishga kishi yuborgandan keyin*, Dovudning aytgan qo‘shig‘i. “Xarob etma” kuyiga aytiladi.*

2 G‘animlarimdan meni qutqar, ey Xudoyim,
Menga qarshi turganlardan himoya qil meni.
3 Badkirdorlardan qutqargin meni,
Qonxo‘rlardan saqlagin meni.

4 Qara, ular meni poylab yotarlar,
Zolimlar menga qarshi fitna qilarlar,
Garchi aybu gunohim bo‘lmasa–da, ey Egam,
5 Garchi men haqsizlik qilmasam–da,
Ular menga qarshi hujum qilmoqqa tayyor.
Qo‘zg‘al O‘zing, ahvolimni ko‘r, kel yordamga.
6 Ey Isroil xalqining Xudosi,
Ey Parvardigori Olam — Egam,
Qani, bo‘l, barcha xalqlarni jazolagin,
Yovuz sotqinlarga shafqat qilmagin.

7 G‘animlarim har kuni oqshomda qaytib keladi,
Itlarday uvullab, shahar izg‘iydi.
8 Qara, og‘izlaridan qusuq chiqadi,
Tillaridan zahar so‘zlar chiqadi,
“Kim ham bizni eshitardi”, deya o‘ylaydi.

9 Ular ustidan Sen kulasan, ey Egam,
Hamma xalqlarni Sen masxaralaysan.
10 Senga intizorman, ey Qudratim,

Sen mening qal’amsan, ey Xudo!
11 Sodiq sevging ila, ey Xudoyim, menga madad
berasan,
Ko‘zlarimga dushmanlarim mag‘lubiyatini
ko‘rsatasan.

12 Ularni o‘ldirma, xalqim bu saboqni unutib qo‘yar,
Qudrating bilan ularni titrat,
Ey qalqonim Rabbiy, ularni ko‘tarib ur.
13 Ularning og‘zidan chiqqan gunohlar uchun,
Lablaridan chiqqan so‘zlar uchun
O‘zlarining takabburligi orqali ilinsin.
Ular aytadigan la’nat, yolg‘on uchun
14 G‘azabing ila ularni yo‘q qilgin,
Bitta ham qoldirmay qirib tashlagin.
Shunda ey Xudo, Yoqub nasli ustidan hukmron
ekanliging
Yerning to‘rt tomonida ma’lum bo‘ladi.

15 G‘animlarim har kuni oqshomda qaytib keladi,
Itlarday uvullab, shahar izg‘iydi.
16 Ovqat izlab, daydib yuradi,
Agar to‘ymasalar, irillaydi.

17 Men esa Sening qudratingni tarannum etaman,
Sodiq sevgingni tongda sevinch ila kuylayman.
Sen mening qal’am bo‘lgansan,
Kulfatda qolganimda panohimsan.
18 Ey Qudratim, Seni kuylab madh qilaman,
Sen, ey Xudo, mening qal’amsan,
Sodiq sevgisini ko‘rsatuvchi Xudosan.

59–SANO

1-2 *Ijrochilar rahbariga. Dovud Oram–Naxrayim* va Oram–Zo‘vo* xalqi bilan urush qilayotgan paytda* Yo‘ab qaytib kelib, o‘n ikki ming Edomlikni Tuz vodiysida* o‘ldirgandan keyin, Dovudning aytgan qo‘shig‘i. “Nilufar gul shahodati” kuyiga aytiladi. Ta’lim uchun.*

3 Ey Xudo, bizni tark etding,
Mudofaamizni yorib o‘tding,
Bizdan g‘azablanding,
Endi bizni oldingi holimizga qaytargin!
4 Yerni silkitding, yoriqlar ochding,
Yoriqlarni tuzatgin, yer tebranmoqda.

5 Xalqingga ko‘p azoblar berding,
Gandiraklab yursin deb, ichgani sharob* berding.

6 Ular kamon o‘qlaridan yashirinib olsin deya*,
O‘zingdan qo‘rqqanlarga ishora berib, bayroq
ko‘rsatasan.
7 O‘ng qo‘ling ila g‘alaba ato qilgin,
Iltijoimizga javob bergin*,
Suyukli bandalaring najot topsin.

8 Ey Xudo, O‘z muqaddas makoningdan va’da
bergansan*:
“Shodlanib, Shakamni* bo‘lib tashlayman,
Suxot vodiysini* taqsimlab beraman.
9 Gilad Menikidir, Manashe* Menikidir,
Efrayim dubulg‘amdir, Yahudo* saltanat hassamdir.
10 Mo‘ab Mening qo‘lyuvgichimdir,
Edom uzra chorig‘imni otaman*,
Olqishlang Meni, ey Filistlar!*”

11 Ey Xudo, qaniydi mustahkam shaharga* meni olib
borsalar,
Edomga meni boshlab borsalar.
12 Axir, bizni O‘zing rad etding–ku!
Lashkarimizga yo‘lboshchilik qilmayapsan–ku endi!
13 Dushmandan qutqarib, bizga yordam ber,
Insonning yordami butunlay behuda.
14 Ey Xudo, Sen bilan biz g‘olib bo‘lamiz,
Dushmanlarimizni Sen yanchib tashlaysan.

60–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Torli asboblar jo‘rligida aytiladigan Dovud sanosi.*

2 Eshitgin, ey Xudo, ohu nolamni,
Tinglagin mening ibodatimni.
3 Yerning u chetidan Senga yolvoraman,
Yuragim qon bo‘lganda, Seni chaqiraman.
Yetib bo‘lmas baland qoyaga meni olib chiqqin.
4 Sen mening panohim bo‘lgandirsan,
Dushmanimga qarshi mustahkam minorasan.

5 Chodiringda to abad maskan qilay,
Qanotlaring soyasida panoh topay.
6 Axir, ey Xudo, ontimni eshitgansan,
Nomingdan qo‘rqqanlarning mulkidan menga ato

qilgansan.

7 Shohning umrini uzaytirgin,
Nasllar osha hayotini davom ettirgin.
8 Ey Xudo, u to abad huzuringda taxtda o‘tirsin,
Sevging, sadoqating ila uni himoya qilgin.

9 Shunda Senga har doim hamdu sano kuylayman,
Bergan ontimni har kuni ado etaman.

61–SANO

1 *Ijrochilar rahbari Yodutunga*. Dovud sanosi.*

2 Jonim yolg‘iz Xudoga muntazirdir,
Najot menga Xudodan keladi.
3 Ha, Uning O‘zi suyangan qoyam, najotimdir.
Qal’am Udir, shu bois aslo qoqilmasman.

4 Ey dushmanlar, qachongacha meni turtasizlar?!
Liqillab turgan chetan devorga,
Qiyshaygan devorga hujum qilganday
Hammangiz menga yopishaverasizlarmi?!
5 Sizning rejangiz obro‘yimni to‘kishdir.
Yolg‘on–yashiq gaplardan zavq olasiz,
Og‘zingiz bilan duo qilasiz,
Ichingizda esa la’nat o‘qiysiz.

6 Ey jonim, yolg‘iz Xudoga muntazir bo‘lgin,
Umidim manbai Uning O‘zidir.
7 Yolg‘iz Xudodir suyangan qoyam, najotim,
Qal’am Udir, shu bois qoqilmasman.
8 Najotimu sharafim Xudodan kelar,
Qudratli qoyamu panohim Udir.

9 Ey xalqim, umid qil Xudodan,
Yuragingni ochgin doimo Unga,
Bizning panohimiz Xudodir.

10 Inson zoti bir nafasdir,
Ha, inson zoti yolg‘ondir!
Agar tarozida tortib ko‘rilsa,
Hammasi birga havodan ham yengil chiqadi.
Ularning aslo vazni yo‘qdir.
11 Yulg‘ichlikka ishonib qolma,
Talonchilikka behuda umid qilma,
Mabodo boyliging ko‘payib qolsa,

Boyligingga ko‘ngil bog‘lama.

12 Ey Xudo, Sen menga bir narsa aytding,
Shu ikki narsa haqida menga gapirding:
Sen qudratli Xudosan.
13 Ey Rabbiy, Sening sevging cheksizdir.
Shu bois Sen har bir insonni
Qilgan ishlariga ko‘ra, mukofotlaysan.

62–SANO

1 *Dovud Yahudo cho‘lida bo‘lgandan keyin*, uning aytgan sanosi.*

2 Ey Xudo, mening Xudoyimsan, intilaman Senga,
Quruq, toliqqan suvsiz tuproqday
Jonim tashnadir Senga,
Vujudim orzumanddir Senga.
3 Muqaddas maskaningda Senga nigoh tashladim,
Qudratingni, shuhratingni ko‘rdim.
4 Hayotdan afzal Sening sevging,
Tilimdan tushmas Senga madhiya.
5 Bir umr Seni olqishlayman,
Qo‘llarimni ko‘tarib, Senga sajda qilaman.
6 Ilik bilan yog‘ yeganday jonim mamnun bo‘ladi,
Shodiyona qo‘shiqlar ila Seni madh qilaman.

7 O‘rnimda yotib ham, Seni eslayman,
Seni o‘ylab, tunni qarshi olaman.
8 O‘zing mening madadkorim bo‘lding,
Qanotlaring soyasida sevinch ila kuylayman.
9 Sening ortingdan qolmay ergashaman,
O‘ng qo‘ling meni mahkam tutadi.

10 Jonimning payiga tushganlar
Yerning qa’riga tushib yo‘q bo‘lib ketadi.
11 Ular qilichning damiga yo‘liqadi,
Chiyabo‘rilarga yem bo‘ladi.

12 Shoh esa Xudodan sevinch topadi,
Xudo nomi bilan ont ichganlar Uni madh qiladi,
Yolg‘onchilarning og‘zi esa yopiladi.

63–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Dovud sanosi.*

2 Ey Xudo, ovozimni eshitgin iltijo qilganimda,

Hayotimni dushman vahimasidan qutqargin.
3 Fosiqning fitnasidan meni yashirgin,
Badkirdorlar to‘dasidan himoya qilgin.
4 Ular tillarini shamshirday qayraydi,
Nishonga olib, zaharli so‘zlarini o‘qday otadi.
5 Aybsiz odamni pistirmadan turib otadi,
Hech qo‘rqmay, birdaniga unga o‘q uzadi.
6 Bir–birining qabih rejalarin qo‘llab–quvvatlaydi,
Yashirincha tuzoq qo‘yishga til biriktiradi,
“Buni kim ham ko‘rardi”, deb o‘ylaydi.
7 Ular adolatsizlikni qasd qiladi:
“Ajoyib reja tuzdik,
Niyatimizni hech kim bilmaydi”, deb aytadi.

8 Xudo esa fosiqlarga o‘q uzadi,
To‘satdan ular yaralanadi.
9 Ularning tili o‘zlarining boshini yeydi,
Ularni ko‘rganlar qaltirab ketadi.
10 Jamiki odamzod qo‘rqib qoladi,
Xudoning ishlarini ular e’lon qiladi,
Xudoning qilganlari haqida o‘ylab ko‘radi.

11 Solihlar Egamiz tufayli sevinsin!
Solihlar Unda panoh topsin,
Hamma pokdil insonlar Uni madh etsin.

64–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Dovud sanosi. Qo‘shiq.*

2 Ey Quddusdagi* Xudo, Sen loyiqsan hamdu sanoga,
Senga bergan ontimizni bajo qilamiz.
3 Sensan ibodatlarga javob berguvchi,
Jamiki odamzod Senga keladi.
4 Gunoh ustimizdan* tantana qilgan,
Sen esa kechirasan gunohlarimizni*.
5 Qutlug‘ hovlimda yashasin deya,
Sen O‘zing tanlab, olib kelgan inson
Naqadar baxtlidir!
Uyingning, muqaddas Ma’badingning ne’matlaridan
Biz bahramand bo‘lamiz.

6 G‘aroyib ishlar ko‘rsatib,
G‘alaba ila bizga javob berasan,
Ey najotkorimiz Xudo!
Yerning to‘rt tomonining,
Hamda eng uzoq dengizlarning umidi Sensan.

7 Kuch bilan O‘zingni qurollantirgansan,
Qudrating ila tog‘larni joylashtirgansan.
8 Dengizlar hayqirig‘ini bostirasan,
To‘lqinlar shovqinini tinchitasan.
Xalqlar shovqin–suroniga barham berasan.
9 Dunyoning u chetida yashovchilar
Mo‘jizalaringdan qo‘rquvga tushadi.
Sharqdan g‘arbgacha xalqlar
Sening ishlaringni sevinch ila kuylaydi.

10 Zaminni Sen sug‘orib parvarishlaysan,
Mo‘l–ko‘l qilib uni boyitasan.
Ey Xudo, daryolaring suvi limmo–limdir,
Insonlarni don–dun bilan ta’minlashni
mo‘ljallagansan.
11 Egatlarini qondirib sug‘orasan,
Baland joylarini O‘zing tekislaysan,
Yomg‘ir bilan tuprog‘ini yumshatasan,
Hosiliga baraka berasan.
12 Mo‘l hosil bilan yilga toj kiygizasan,
Aravalaring yurgan yo‘llardan boylik oqadi.
13 Cho‘l sersuv o‘tloqzorlarga aylanadi,
Tepaliklar sevinchga burkanadi.
14 Yaylovlar qo‘y suruvlari bilan qoplanadi,
Vodiylar donlarga to‘ladi,
Ular sevinchdan hayqirib qo‘shiq aytadi.

65–SANO

Ijrochilar rahbariga. Sano. Qo‘shiq.

1 Xudoga shodlik ila hayqiring,
Ey yer yuzidagi insonlar!
2 Xudoning ulug‘vorligini kuylang!
Unga ajoyib hamdu sanolar ayting!
3 Xudoga aytinglar:
“Sening ishlaring naqadar g‘aroyib!
Qudrating buyukligidan
Dushmanlaring oldingda titrab tiz cho‘kadi.
4 Butun zamin Senga sajda qiladi,
Ular Senga hamdu sano aytadi,
Ha, O‘zingga hamdu sano kuylaydi.”

5 Kel! Xudo nima qilganini ko‘rgin!
Inson manfaati uchun qilgan
G‘aroyib ishlarini ko‘rgin!

6 Xudo dengizni quruq yerga aylantirdi,
Ota–bobolarimiz bahrdan yurib o‘tdi*,
U yerda qilgan ishlaridan,
Xudo tufayli biz sevinamiz.
7 Qudrati ila to abad hukm suradi,
Ko‘zlari xalqlarni kuzatib turadi,
Unga qarshi isyonchilar qo‘zg‘almasin.

8 Ey xalqlar, Xudoyimizga olqishlar ayting,
Uning hamdu sanosi yangrasin.
9 U bizning hayotimizni saqlagan,
Oyoqlarimizni toyib ketishdan asragan.

10 Ey Xudo, Sen bizni sinading,
Kumushni tozalaganday bizni tozalading.
11 Bizni tuzoqqa yo‘liqtirding,
Yelkamizga og‘ir yuk ortding.
12 Aravalarni boshimiz uzra yurgizding,
Olov, suvlardan biz kechib o‘tdik,
Farovonlikka* bizni olib kelding.

13 Kuydiriladigan qurbonliklar bilan
Senga bergan ontimni ado etgani
Men Sening uyingga kelaman.
14 Kulfatda qolganimda ont ichgan edim,
Tilim va’da bergan, og‘zim so‘ylagan edi.
15 Bo‘rdoqilarni kuydirib, Senga qurbonlik qilaman.
Qo‘chqor, taka, buqalarni keltiraman.
Qurbonliklarning hidi samoga yetib boradi.

16 Ey Xudodan qo‘rqqanlar, kelib eshitinglar,
Men uchun U nima qilganin so‘zlab berayin.
17 Madad so‘rab Xudoga yolvordim,
Uning hamdu sanosi hech tilimdan tushmadi.
18 Yuragimda gunohim bo‘lsa edi,
Meni aslo eshitmas edi Rabbiy.
19 Xudo meni tingladi,
Ibodat qilganimda, ovozimni eshitdi.

20 Xudoga olqishlar bo‘lsin!
Ibodatimni U rad qilmadi,
Sodiq sevgisini mendan darig‘ tutmadi.

66–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Torli asboblar jo‘rligida*

aytiladigan sano. Qo‘shiq.

2 Ey Xudo, mehribon bo‘lgin, baraka bergin bizga,
Yuzing nurini sochgin lutf ila ustimizga,
3 Zaminda ma’lum bo‘ladi Sening yo‘llaring,
Jamiki xalqlar orasida ma’lum bo‘ladi Sening
najoting.

4 Ey Xudo, xalqlar Seni madh qilsin,
Jamiki xalqlar Senga hamdu sano aytsin.
5 Xalqlarni Sen odillik ila hukm qilasan,
Zamin uzra elatlarga yo‘lboshchilik qilasan,
Sevinsin xalqlar, shodlanib qo‘shiq aytsin.
6 Ey Xudo, xalqlar Seni madh qilsin,
Jamiki xalqlar Senga hamdu sano aytsin.

7 Yer o‘z hosilini bersin,
Xudoyimizning O‘zi bizga baraka bersin.
8 Ha, Xudo bizga baraka bersin!
Yerning to‘rt tomonidagi xalqlar Unga tiz cho‘ksin.

67–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Dovud sanosi. Qo‘shiq.*

2 Qo‘zg‘alsin Xudo, tarqalib ketsin dushmanlari,
Oldidan qochib ketsin Undan nafratlanganlar.
3 Tutunni shamol tarqatgani kabi,
Xudo ularni haydab yuborsin.
Mum olovda erigani kabi,
Xudo oldida fosiq halok bo‘lsin.
4 Solihlar esa xursand bo‘lsin,
Xudo oldida shod bo‘lsin,
Ular xursandlikka to‘lib–toshsin.

5 Xudoga hamdu sanolar kuylang,
Uning nomini tarannum eting.
U bulutlarni minib boradi,
Uni ulug‘lang.
U Egamizdir!
Huzurida shodlaning!
6 U Xudodir, makoni muqaddasdir,
Yetimlarning otasi, bevalar himoyachisidir.
7 Xudo yolg‘izlarni xonadonga joylashtiradi,
Asirlarni rohatga, erkinlikka olib chiqadi,
Isyonkorlar esa qaqragan yerga ega bo‘ladi.

8 Ey Xudo, O‘z xalqingning oldida borganingda,

Sahro boʻylab yurish qilganingda,
Zamin titradi, osmon yomgʻirini quydi.
9 Sening huzuringda, ey Sinay togʻining Xudosi*,
Sening oldingda, ey Isroil xalqining Xudosi,
Zamin titradi, osmon yomgʻirini quydi.
10 Sen, ey Xudo, moʻl yomgʻir berding,
Toliqqan yeringga* qaytadan kuch ato etding.
11 Xalqing oʻsha yerda boshpana topdi,
Ey Xudo, himmatingdan muhtojlarni bahramand
qilding.

12 Rabbiydan amr keladi,
Ayollarning katta jamoasi xushxabarni eltadi:
13 “Shohlaru lashkarlar shosha–pisha qochdi!”
Ha, Isroil ayollari chodirlarda oʻljani boʻlishib oladi!
14 Hatto uyda qolganlar uchun ham
Bordir kumush bilan qoplangan kaptar qanotlari,
Yaltiroq oltin bilan qoplangan kaptar patlari.
15 Qodir Xudo shohlarni toʻzgʻitganda,
Zalmon togʻiga* qor yoqqanday boʻldi.

16 Ey Bashanning togʻi*, ulugʻvor togʻ,
Ey choʻqqilari koʻp togʻ, Bashanning togʻi!
17 Ey choʻqqilari koʻp togʻ!
Xudo makon qilib tanlagan toqqa*
Nega hasad bilan qaraysan?
Egamiz to abad u yerda istiqomat qiladi.

18 Xudoning jang aravalari son–sanoqsizdir,
Rabbiy Sinaydan muqaddas makoniga keladi.
19 Yuksaklarga* chiqdi U,
Asirlarni ortidan ergashtirdi.
Xalqlardan hadyalar oldi,
Hatto gunohkor isyonchilardan ham tuhfalar oldi.
Axir, Parvardigor Egamiz u yerda yashaydi!

20 Rabbiyga olqishlar boʻlsin,
U har kuni ogʻirligimizni koʻtaradi.
Xudo bizning najotimizdir.
21 Xudoyimiz — najot berguvchi Xudo,
Egamiz Rabbiy oʻlimdan qutqaradi.

22 Xudo shubhasiz dushmanlar boshini yanchadi,
Gunoh yoʻlidan yurgan odamning
Bosh suyaklarini ham ezadi.
23 Rabbiy shunday deydi:

“Dushmanlaringni Bashandan qaytarib kelaman,
Ularni dengiz tubidan olib kelaman.
24 Oyog‘ingni dushmanlaring qoniga botirasan,
Itlaring ham dushman qonini yalab,
O‘z ulushini oladi.”

25 Ey Xudo, zafarli karvoning ko‘rinmoqda!
Xudoyim, mening Shohim, Sening karvoning
Muqaddas makoningga borayotgani ko‘rinmoqda!
26 Oldinda qo‘shiqchilar, orqada sozandalar,
Ularning o‘rtasida childirma chalgan qizlar kuylar:
27 “Olqishlar ayting Xudoga buyuk jamoa ichra,
Hamdu sanolar o‘qing Egamizga,
Ey Isroilning manbaidan paydo bo‘lganlar!”
28 Ularning eng kichigi — Benyamin qabilasi oldinda
keladi,
Ortidan to‘p bo‘lib Yahudo shahzodalari keladi,
Zabulun, Naftali* shahzodalari ularga ergashadi.

29 Ey Xudo, ko‘rsatgin qudratingni!*
Ey Xudo, avvalgiday namoyon qil kuchingni!
30 Quddusdagi Ma’bading haqi–hurmati
Shohlar Senga hadyalar keltiradi.
31 Misrga, qamishzor orasidagi o‘sha yovvoyi
hayvonga* tanbeh ber,
Xalqlarga, o‘sha buqalar podasiga, buzoqlariga
tanbeh bergin.
Senga ta’zim qilib, kumushlarini nazr qilishsin.
Urushdan lazzatlanuvchi bu xalqlarni to‘zg‘itgin.
32 Misrdan bronza keltiriladi*,
Habashiston* Senga qo‘llarin cho‘zib, ey Xudo,
O‘lpon to‘lashga shoshilib qoladi.

33-34 Xudoni tarannum eting, ey yer yuzi shohliklari,
Samolar — azaliy samolar uzra chiqqan,
Haybatli ovozi gulduragan
Rabbiyga hamdu sanolar kuylang.
35 Hammaga e’lon qiling Xudoning qudratini,
Uning ulug‘vorligi Isroil ustidadir,
Uning qudrati samolardadir.
36 Xudo qo‘rqinchlidir O‘zining muqaddas
maskanida,
Isroil xalqining Xudosi kuch–qudrat berar O‘z
xalqiga.

Xudoga olqishlar bo‘lsin!

68–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. “Nilufar” kuyiga aytiladigan Dovud sanosi.*

2 Ey Xudo, meni O‘zing qutqar,
Suvlar bo‘g‘zimga qadar ko‘mdi.
3 Botqoqqa cho‘kib borayotirman,
Oyog‘imni qo‘ygani qattiq yer yo‘q.
Chuqur suvlarga botib ketdim,
Endi to‘lqinlar meni yutmoqda.
4 Madad so‘rab, sillam quridi,
Tomoqlarim qaqrab ketdi,
Ey Xudoyim, Seni kutib, ko‘z nurim so‘ndi.

5 Sababsiz mendan nafratlanganlar
Boshimdagi sochimdan ham ko‘pdir.
Ko‘pchilik sababsiz menga dushmandir,
Ular jonimga qasd qilmoqchilar.
Men o‘g‘irlamagan narsalarni ular,
Qaytib ber, deb meni majbur qilmoqdalar.
6 Ey Xudo, aqlsizligimni O‘zing bilasan,
Ayblarim Sendan aslo yashirin emas.

7 Ey Sarvari Olam — Rabbiy,
Sendan umid qilganlar
Men tufayli uyatga qolmasinlar.
Ey Isroil xalqining Xudosi,
Senga yuz burganlar
Men tufayli sharmanda bo‘lmasinlar.
8 Seni deb haqoratga chidadim,
Xijolatdan yuzim shuvut.
9 Aka–ukalarimga go‘yo begonadayman,
Tug‘ishganlarim orasida musofirdayman.

10 Sening uyingga bo‘lgan sevgim ichimni yondirar,
Seni haqoratlaganlar meni haqorat qilgan bo‘lar.
11 Faryod qilib, ro‘za tutganimda,
Men masxara bo‘ldim.
12 Kulfatda qolib, qanor kiyganimda*,
Ular ustimdan kuldilar.
13 Shahar darvozasi oldida* o‘tirganlar
Meni g‘iybat qilarlar,
Mast–alastlar men to‘g‘rimda qo‘shiq aytarlar.

14 Men esa, ey Egam, Senga ibodat qilaman.
Ma’qul vaqtda, sodiq sevging soyasida, ey Xudo,

Ishonchli najoting bilan javob ber menga.
15 Meni qutqargin, botqoqqa botib ketmay,
Mendan nafratlanganlardan xalos bo‘lay,
Meni chuqur suvlardan saqlagin.
16 To‘fon meni g‘arq qilmasin,
Tubsiz suvlar meni yutmasin,
Qabr menga og‘zin ochmasin.

17 Javob ber ibodatimga, ey Egam,
Naqadar ezgudir sodiq sevging,
Buyuk shafqating ila menga yuz burgin.
18 Men, qulingni jamolingdan bebahra qilma,
Kulfatda qolganman, javob ber tezda.
19 Yaqinroq kel, qutqargin meni,
Dushmanlarimdan xalos qil meni.

20 Haqoratga duchor bo‘lganim,
Sharmandayu sharmisor bo‘lganim
O‘zingga ravshan.
Hamma dushmanlarimni bilasan.
21 Haqoratlar qalbimni yaralab,
Tushkunlikka tushirdi.
Bir hamdard izladim, hech kim yo‘q edi,
Tasalli beruvchi izladim–u, topmadim.
22 Ovqatimga ular zahar soldilar,
Chanqaganimda menga uzum sirkasi berdilar.

23 Dasturxonlari o‘zlariga tuzoq bo‘lsin,
Hamtovoqlari uchun qopqon bo‘lsin.
24 Ko‘z nurlari so‘nsin, ko‘rmay qolsin,
Bellari to abad bukchayib qolsin.
25 Ular ustiga g‘azabingni sochgin,
Qahring alanga olib, ularni yutib yuborsin.
26 Ularning makoni tashlandiq bo‘lib qolsin,
Chodirlarida tirik bir jon qolmasin.
27 Sen urgan insonlarni ular ta’qib qiladi,
Sen bergan yara azoblarini ular g‘iybat qiladi.
28 Gunohlari ustiga gunoh qo‘shgin,
Ularni Sen oqlamagin.
29 Nomlari hayot kitobidan o‘chirilsin,
Solihlar bilan yonma–yon yozilmasin.
30 Men azobda, kulfatda qolganman,
Ey Xudo, najoting meni himoya qilsin.

31 Nomini kuylab, Xudoni madh qilaman,
Shukur aytib, Uni maqtayman.

32 Qurbonlik qilingan buzoqdan, hatto buqadan ko‘ra,
Hamdlarim Egamni ko‘proq mamnun qiladi.
33 Mazlumlar buni ko‘rib, sevinsin,
Xudoga intilayotganlar dadil bo‘lsin.
34 Egamiz muhtojlarni eshitadi,
Asir bo‘lgan xalqidan nafratlanmaydi.
35 Yeru osmon Egamizni madh aylasin,
Dengizlaru ulardagi jonzotlar Uni ulug‘lasin.
36 Xudo Quddusga* najot beradi,
Yahudo shaharlarini qayta tiklaydi,
Xalq o‘rnashib, u yerni mulk qiladi.
37 Xudo qullarining avlodi u yerni egallaydi,
Xudoni sevganlar u yerni maskan qiladi.

69–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Dovud sanosi. Egamizdan madad so‘rab aytgan iltijosi.*

2 Ey Xudo, najot ber menga,
Kelgin tezda, ey Egam, madad ber menga.
3 Jonimga qasd qilganlar
Sharmandayu sharmisor bo‘lsin!
Halokatimni istaganlar
Uyatga qolib, orqaga qaytsin!
4 “Holing qalay endi?!” deb meni masxaralaganlar
Sharmanda bo‘lib, orqaga qaytsin.

5 Senga yuz burganlarning hammasi
Sen tufayli sevinch, shodlikka to‘lsin.
Sening najotingni sevganlar:
“Xudo yuksalaversin”, deb doim aytsin.
6 Eh, men g‘arib, bechoraman,
Menga yordam berishga shoshil, ey Xudo!
Madadkorim, najotkorim O‘zingsan,
Kechikmagin, ey Egam!

70–SANO

1 Ey Egam, Senda men panoh topaman,
Sharmanda bo‘lishimga aslo yo‘l qo‘ymagin.
2 Adolatlisan, meni xalos qil, qutqargin,
Quloq tut menga, najot bergin.
3 Mening panoh qoyam bo‘lgin,
Har doim Senga bora olay.
Meni qutqarmoq uchun amr berding.
Chindan ham, Sen suyangan qoyamsan, qal’amsan.

4 Ey Xudoyim, fosiqning qo‘lidan meni qutqargin,
Adolatsiz, zolim odamning iskanjasidan qutqargin.
5 Sen, ey Egam Rabbiy, mening umidimsan,
Yoshligimdan Senga umid bog‘laganman.
6 Tug‘ilganimdan buyon Senga suyandim,
Onamning qornidan meni olib chiqqansan,
Doimo Senga hamdu sano aytaman.

7 Hayotim ko‘pchilikka o‘rnak bo‘ldi,
Chunki Sen mening mustahkam panohimsan.
8 Og‘zimdan aslo tushmas Senga hamdu sanolar,
Kun bo‘yi shuhratingni e’lon qilaman.
9 Keksaygan chog‘imda meni tashlab qo‘ymagin,
Quvvatim ketganda, meni tark etmagin.
10 Axir, dushmanlarim menga qarshi til biriktiradi,
Birga fitna qilib, meni o‘ldirmoqchi bo‘ladi.
11 Dushmanlarim aytar: “Xudo tark etgan uni,
Quvinglar, ushlanglar uni,
Uni qutqaradigan hech kimsa yo‘qdir.”

12 Ey Xudo, mendan uzoq ketmagin,
Tez kel, ey Xudoyim, menga madad ber!
13 Meni ayblovchilar sharmandalikdan yerga kirib
ketsin,
Menga zarar yetkazmoqchi bo‘lganlar
Masxara bo‘lsin, badnom bo‘lsin.
14 Men esa doimo Senga umid bog‘layman,
Yanada ko‘p hamdu sano aytaman.
15 Menga qilganlaringdan hayratga tushdim,
Adolatingni har kimga hikoya qilaveraman,
Najotingni kun bo‘yi so‘ylayveraman.
16 Qudratli ishlaringni madh qilaman, ey Egam
Rabbiy,
Yolg‘iz Sening odilligingni madh qilaman.

17 Ey Xudo, yoshligimdan Sen menga ta’lim
bergansan,
Ajoyib ishlaringni hamon aytib yuraman.
18 Sochlarim oqarib, keksayganimda,
Meni tark etmagin, ey Xudo!
Kelgusi avlodlarga kuching haqida aytay,
Mendan keyin keladiganlarga
Qudrating haqida aytib beray.
19 Adolating samolarga yetadi, ey Xudo,
Buyuk ishlar qilding Sen,

Senga oʻxshagan kim bor, ey Xudo?!
20 Duchor qilding meni koʻp kulfat, azoblarga,
Meni yana hayotga qaytarasan,
Yer ostidan yana meni chiqarib olasan.
21 Shuhratimni yana yuksaltirasan,
Menga yana taskin berasan.

22 Arfa chalib, Senga hamdu sano aytaman,
Sening sadoqatingni kuylayman, ey Xudoyim.
Lira chalib, Seni tarannum qilaman,
Ey Isroil xalqining Muqaddas Xudosi!
23 Seni madh qilib kuylaganimda,
Shodlikdan hayqiraman.
Meni Sen qutqargansan.
24 Menga zarar yetkazmoqchi boʻlganlar
Sharmandayi sharmisor boʻldilar.
Kun boʻyi tilim adolating haqida soʻylaydi.

71–SANO

1 *Sulaymon sanosi.*

Ey Xudo, shohga adolatingni bergin,
Shoh oʻgʻliga toʻgʻri hukm chiqarishni oʻrgatgin.
2 Sening xalqingni u adolat ila hukm etsin,
Bechoralarni u toʻgʻrilik bilan hukm etsin.
3 Togʻlar xalqqa rohat–farogʻat olib kelsin,
Tepaliklar haqiqat samarasini keltirsin.
4 Shoh xalqning qashshoqlarini himoya qilsin,
Bechoralarning bolalariga najot bersin,
Zolimlarni ezib tashlasin.
5 Nasllar osha quyoshu oy samoda turganday,
Uning umri ham shunchalik uzoq boʻlsin!*

6 Shohimiz oʻxshasin oʻrilgan dalaga,
Yoqqan huzurbaxsh yomgʻirga,
Yerni sugʻorgan sharros yomgʻirga.
7 Uning davrida solih yashnasin,
Dunyo turguncha moʻl–koʻlchilik boʻlsin.

8 U bir dengizdan ikkinchisiga qadar,
Furot daryosidan tortib,
Yer yuzining toʻrt tomoniga hukmronlik qiladi.
9 Shoh oldida choʻl qabilalari tiz choʻksin,
Uning dushmanlari tuproq yalasin.
10 Dengiz ortidagi yurtlarning shohlari,
Tarshish* shohlari unga oʻlpon olib kelsinlar.

Shava* hamda Savo* shohlari
Unga hadyalar keltirsinlar.
11 Hamma shohlar unga ta’zim aylasin,
Hamma xalqlar unga xizmat qilsin.

12 Mazlum nola qilganda, shoh najot beradi,
Madadkori yo‘q bechorani u qutqaradi.
13 Zaif, bechoraga u shafqat ko‘rsatadi,
Mazlumlarning hayotini saqlaydi.
14 Mazlumlarni jabr–zulmdan xalos qiladi,
Mazlumlar qoni uning nazarida azizdir.

15 Shohning umri uzoq bo‘lsin!
Shavaning oltini uniki bo‘lsin,
Xalq doimo u uchun ibodat qilsin,
Kun bo‘yi duo qilib, Xudodan baraka tilasin.
16 Yurtda don mo‘l–ko‘l bo‘lsin,
Tepaliklar ustida don boshoqlari chayqalib tursin.
Lubnon tog‘larida bo‘lgani kabi, hosili unumli bo‘lsin.
Daladagi giyohlar kabi, shaharlari odamga to‘lsin.
17 Shohning nomi mangu yashasin,
Uning dong‘i quyosh turguncha bor bo‘lsin,
Barcha xalqlar u orqali baraka topsin,
Xalqlar uni, baxtiyor, deb aytsin.

18 Isroil xalqining Xudosi — Egamizga olqishlar
bo‘lsin.
Ajoyib ishlar qiladigan yolg‘iz Udir.
19 Egamizning ulug‘vor nomiga to abad olqishlar
bo‘lsin,
Butun yer yuzi Uning shuhrati bilan to‘lsin.

Omin! Omin!

20 Essay o‘g‘li Dovudning ibodatlari nihoyasiga yetdi.

72–SANO

Osif sanosi.*

1 Haqiqatan ham, Isroil xalqiga,
Yuragi pok bo‘lganlarga Xudo himmat qilar.
2 Oyoqlarim toyib ketay, dedi,
Sal bo‘lmasa sirpanib yiqilay, dedim.
3 Fosiqning yashnayotganini ko‘rganimda,
Takabburlarga hasad qildim.

4 Ular og‘riq nimaligini bilmaydilar*,
Tanalari soppa–sog‘, baquvvat.
5 Boshqalarday ular dard tortmaydilar,
Boshqalarday ular azob chekmaydilar.
6 Kiborlik ularning bo‘ynidagi marjon bo‘ladi,
Zo‘ravonlikni ular libos qilib kiyib olgan.
7 Ularning ko‘zlarini yog‘ bosib qolgan,
Xayollarida ahmoqona niyatlar to‘lib–toshgan.
8 Takabburlar masxaralab, xusumat bilan gapiradi,
Mag‘rurlanib, zulm bilan tahdid qiladi.
9 Fosiqlar og‘izlari bilan osmonga da’vo qiladi,
Tillari bilan yer yuzini mulk qilib oladi.
10 Shu bois har kim ularga yuz buradi,
Ularning so‘zlarini suv kabi ichadi*.
11 Yana ular shunday deydilar:
“Xudo qanday qilib bila oladi?!
Xudoyi Taolo nimani ham bilardi?!”
12 Fosiqlar ana shunaqa!
Doimo betashvish boylik orttiradi.
13 Ha, men bekorga yuragimni pok tutgan ekanman–
da!
Aybsizman, deya bekorga qo‘llarimni yuvibman–da!
14 Axir, kun bo‘yi azob tortaman,
Har kuni ertalab jazo olaman.

15 Men ham fosiq gaplarni gapiraverganimda,
Sening sodiq farzandlaringga xoinlik qilgan bo‘lar
edim.
16 Ammo bularni tushunay, desam,
Bu ish juda ham mashaqqatli tuyuldi.
17 Xudoning muqaddas maskaniga kirdim,
Shundagina fosiqlar qismati ne bo‘lishini tushundim.

18 Ey Xudo, chindan ham ularni sirpanchiq yerga
qo‘ygansan,
Ularni jarlikka uloqtirib, barbod qilasan.
19 Ular birdan qirilib ketadi,
Vahimadan qirilib, yo‘q bo‘ladi.
20 Ularning hayoti faqat tushdir,
Uyg‘onganlarida unut bo‘ladi.
Sen ham qo‘zg‘alganingda, ey Rabbiy,
Ularning hayotiga chek qo‘yasan.

21 G‘amga to‘lgan paytlarimda,
Yuragimda dard paydo bo‘lganda,

22 Men nodon, johil bo‘lgan ekanman,
Qarshingda ongsiz hayvon kabi bo‘lgan ekanman.
23 Shunday bo‘lsa ham, doimo Sen bilanman,
Sen o‘ng qo‘limdan ushlagansan.
24 O‘gitlaring bilan menga yo‘l ko‘rsatasan,
Oxiri meni shon–shuhrat ila kutib olasan.
25 Sendan boshqa kimim bor samoda?!
Sendan o‘zgasini istamasman yer yuzida.
26 Ado bo‘lishi mumkin tanamu yuragim,
Ammo Sen, ey Xudo, qalbimning quvvatisan,
Sen to abad barqarorligimsan.

27 Sendan uzoq bo‘lganlar halok bo‘ladi,
Qirib tashlaysan Senga sodiq bo‘lmaganlarni.
28 Ey Xudo, Senga yaqin bo‘lganim esa menga
yaxshidir.
Ey Egam Rabbiy, Seni panohim qilib oldim,
Sening hamma ishlaringni aytib yuraman.

73–SANO

Osif qasidasi*.*

1 Ey Xudo! Nechun bizni to abad rad etasan?!
Nechun yaylovdagi qo‘ylaringga g‘azabingni
sochasan?!
2 Azalda O‘zingniki qilib olgan xalqingni yodingda
tut.
O‘zimning mulkim bo‘lsin deb, qutqargan xalqingni,
O‘zing maskan qilgan Sion tog‘ini yodingda tut.
3 Dahshatli bu xaroba tomon qadam bosib ko‘r,
Qara, muqaddas maskandagi borini g‘anim yo‘q qildi.

4 G‘animlaring shovqin–suroni muqaddas
maskaningni to‘ldirdi,
Bayroqlarini ular belgi qilib o‘rnatdi.
5 O‘zlarini boltasi bor odamday tutdilar,
O‘rmondagi daraxt kesuvchilarday tutdilar.
6 So‘ngra boltayu bolg‘alar bilan
Parchaladilar uning o‘ymakor ishlarini.
7 Muqaddas maskaningga o‘t qo‘ydilar,
Sen ulug‘lanadigan makonni harom qildilar,
Ma’badingni yer bilan bitta qildilar.
8 “Ularni tamomila qirib tashlaymiz”, deb o‘z
ko‘nglida aytdilar,
Yurtdagi barcha sajdagohlarni yoqib tashladilar.

9 Bironta ham payg‘ambar qolmadi,
Mo‘jiza alomatlarini topa olmaymiz.
Qachongacha davom etar bu?
Birontamiz bilmaymiz.
10 Ey Xudo, qachongacha g‘anim Seni masxara qilar?!
Seni dushman to abad haqorat qilarmi?!
11 Nechun o‘ng qo‘lingni ishga solmaysan?!
Qo‘lingni qo‘yningdan chiqarib,
Ularni qirib tashlagin!

12 Ey Xudo, azaldan mening Shohimsan,
Yer yuziga Sen najot olib kelasan.
13 Qudrating bilan dengizni bo‘lgan Sensan,
Dengiz ajdarlarining boshini majaqlagansan.
14 Maxluq Levitanning* boshlarini ezib tashlagansan,
Cho‘l jonzotlariga* uni yemish qilib bergansan.
15 Buloqlaru anhorlarni ochgan Sensan,
Oqar daryolarni quritgan ham Sensan.
16 Kunduz Senikidir, tun ham Seniki,
Quyosh va oyni* bunyod etgansan.
17 Zaminning chegarasini Sen o‘rnatgansan,
Yoz va qishni ham o‘rnatgan Sensan.

18 Ey Egam, dushmanning masxaralashini,
Ahmoq odamlar Seni haqoratlashini yodingda tut.
19 Kaptarlaring hayotini yovvoyi hayvonlarga berma,
Mazlum xalqingning hayotini to abad unutma.

20 Biz bilan qilgan ahdingni esla,
Yurtdagi zulmat joylar zo‘ravonlikka to‘la.
21 Sharmandalikka mazlum duchor bo‘lmasin,
Faqiru bechora Senga hamdu sano aytsin.
22 Qani, ey Xudo, da’voingni isbot qilgin,
Ahmoqlar kun bo‘yi Seni masxara qilishini yodda tut.
23 Dushmanlaring shovqin–suroni ko‘tarilaveradi,
Ularning baqir–chaqirig‘ini e’tiborsiz qoldirma.

74–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. “Xarob etma” kuyiga aytiladigan Osif* sanosi. Qo‘shiq.*

2 Ey Xudo, Senga shukurlar aytamiz,
Shukurlar aytamiz, Sen bizga yaqinsan,
Mo‘jizalaring haqida odamlar gapiradi.

3 Xudo aytar: “Belgilangan vaqtni tanlayman,
Haqqoniylik bilan hukm qilaman.
4 Zamin va undagi insonlar titragan paytda
Zamin ustunlarini* mahkam ushlagan Menman.”
5 Maqtanchoqlarga Xudo aytar: “Maqtanmagin”,
Fosiqqa aytar: “Kuching bilan maqtanmagin.
6 Gerdayib, samolarga kuchingni koʻrsatma,
Qaysarlarcha kiborlik bilan gapirma.”

7 Hech kim sharqdan yoki gʻarbdan
Yoxud sahrodan insonni yuksaltira olmaydi.
8 Hukm qiladigan Xudodir,
Birovni U yiqitar, boshqasini yuksaltirar.
9 Gʻazab kosasi Egamizning qoʻlida,
Ziravor qoʻshilgan koʻpikli sharobga* toʻla.
U sharobni quyadi,
Olamdagi jamiki fosiqlar esa
Quyqumigacha ichib tugatadi.
10 Men to abad Yoqubning Xudosi haqida gapiraman,
Uni hamdu sano ila tarannum etaman.

11 Xudo aytar: “Fosiqlarning kuchini qirqaman,
Solihlarning qudratini oshiraman.”

75–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Torli asboblar joʻrligida aytiladigan Osif* sanosi. Qoʻshiq.*

2 Yahudo yurtida Xudo mashhurdir,
Isroilda Uning nomi buyukdir.
3 Uning chodiri Quddusdadir*,
Makoni Siondadir.
4 Oʻsha yerda sindirdi otashday oʻqlarni,
Qalqonu qilichni, jang qurollarini.

5 Ey Xudo, naqadar buyuksan!
Oʻljaga boy togʻlardan Sen ulugʻvorsan!
6 Jasur askarlar oʻlja boʻlib yotibdi,
Ular oʻlim uyqusiga ketgan.
Bironta jangchining
Qoʻl koʻtarishga kuchi qolmadi.
7 Ey Yoqubning Xudosi! Sening hayqirigʻingdan,
Otlaru chavandozlar karaxt boʻlib yotibdi.
8 Chindan ham Sen qoʻrqinchlisan,
Kim bardosh bera olar Sening qarshingda,
Gʻazabing qoʻzgʻalgan paytda?!

9-10 Samolardan hukmingni e’lon qilding!
Ey Xudo! Sen hukm qilay deb,
Olamdagi mazlumlarni qutqaray deb, qo‘zg‘alding.
Shunda yer yuzi qo‘rqib sukutda qoldi.
11 Insonga bo‘lgan g‘azabing* O‘zingga hamdu sano
keltirar,
G‘azabingdan qutulganlarni atrofingga to‘playsan*.

12 Egangiz Xudoga ontingizni ado qilinglar,
Qo‘rqinchli Xudoga atrofidagilari*
Hadyalar olib kelsinlar!
13 Xudo takabbur shahzodalarni bo‘ysundirib oladi,
Yer yuzi shohlarini qo‘rquvga soladi.

76–SANO

1 *Ijrochilar rahbari Yodutunga*. Osif* sanosi.*

2 Faryod qilib, Xudoga yolvoraman,
Eshitgin meni, deb Xudoga hayqiraman*.
3 Qayg‘uli kunimda Rabbiyga intildim,
Tunda qo‘llarimni ko‘tarib iltijo qildim,
Jonim tasalli topishni rad etdi.

4 Ey Xudo, Seni o‘ylaganimda, fig‘on chekaman,
Ruhim zaiflashadi.
5 Tun bo‘yi Sen meni bedor qilding,
So‘zlay olmayman azoblanganimdan.
6 Oldingi kunlar haqida o‘ylab yurdim,
Eski davrlarni eslab yurdim.
7 Tun bo‘yi o‘zim bilan o‘zim suhbat qurdim*,
Qalbim xayolga berilib, ruhim so‘rab–surishtirdi:
8 “Rabbiy to abad bizni rad etarmikan?
Hech qachon shafqat ko‘rsatmasmikan?
9 Uning sodiq sevgisi to abad yo‘qolganmi?
Uning va’dalari bir umrga tamom bo‘lganmi?
10 Xudo shafqatli bo‘lishni unutib qo‘ydimi?
Rahmdillik o‘rnini g‘azab egalladimi?”
11 O‘zimga o‘zim dedim:
“Xudoyi Taolo o‘ng qo‘li orqali
Endi bizga yordam bermayapti.
Bu mening kulfatimdir.”

12 Ey Egam, ishlaringni men yodga olaman,
Azaliy mo‘jizalaringni esga olaman.
13 Hamma ishlaringni xayolimdan o‘tkazaman,
Qudratli ishlaring haqida fikr yuritaman.

14 Sening yoʻling, ey Xudo, muqaddasdir,
Qaysi xudo Senday buyukdir?!
15 Moʻjizalar yaratuvchi Xudo Sensan,
Xalqlar orasida qudratingni koʻrsatgan Sensan.
16 Qudrating bilan Oʻz xalqingni,
Yoqub hamda Yusuf nasllarini qutqargansan.

17 Ey Xudo, suvlar Seni koʻrganda,
Ha, suvlar Seni koʻrganda, qoʻrqib ketdilar,
Tubsiz dengizlar larzaga keldi!
18 Bulutlar yomgʻirin quydi,
Samolar gumburlab yangradi,
Oʻqlaring har tomonda
Yalt etib paydo boʻldi.
19 Gumbur–gumbur eshitildi quyun ichida,
Chaqmoqlaring olamni yoritdi,
Zamin titrab, tebrandi.
20 Yoʻling dengiz orqali oʻtdi,
Soʻqmogʻing bahaybat suvlardan oʻtdi,
Izlaring esa koʻrinmas edi.
21 Xalqingni qoʻy suruviday yetaklab bording,
Muso, Horunni rahnamo qilib tanlading.

77–SANO

Osif qasidasi*.*

1 Quloq soling, ey xalqim, oʻgitlarimga,
Quloq tuting ogʻzimdan chiqqan soʻzlarga.
2 Ogʻzimni ochaman masalga,
Oʻtmishning sirli saboqlarin oʻrgataman sizga.
3 Bularni aytgan edi ota–bobolarimiz,
Ulardan eshitganmiz, bilamiz.
4 Egamizning hamdga loyiq ishlarini,
Uning qudratini, U qilgan ajoyibotlarni
Biz yashirmay aytamiz ota–bobolarimiz nasliga,
Hikoya qilamiz bolalarimizga.

5 Yoqub nasliga U farmon berdi,
Isroilga qonun tayinladi.
Ota–bobolarimizga amr berib:
“Bolalaringizga oʻrgating”, dedi*.
6 Toki kelajak nasllar bularni bilsin,
Bilsin hatto tugʻilmagan bolalar,
Oʻz navbatida bolalariga aytsin ular.
7 Bolalari ham umidini bogʻlasin Xudoga,

Xudoning ishlarini unutib qo‘ymay,
Rioya etsin Uning amrlariga.
8 Toki ular ota–bobolariga o‘xshab,
O‘jar, isyonkor nasl bo‘lmasin.
Yuragida Xudoga sadoqati bo‘lmagan,
Ruhan beqaror nasl bo‘lmasin.

9 O‘q–yoy bilan qurollangan Efrayim jangchilari*
Jang kunida ortiga qaytdi*.
10 Ular Xudoning ahdiga rioya qilmadilar,
Uning qonunlari bo‘yicha yurishni rad etdilar.
11 Ular unutdilar Xudoning qilgan ishlarini,
Xudoning ularga ko‘rsatgan mo‘jizalarini.
12 Misr diyoridagi Zo‘van tekisligida*,
Ularning ota–bobolari ko‘z o‘ngida
Xudo mo‘jizalar ko‘rsatgandi.
13 Dengizni yorib, o‘rtasidan ularni o‘tkazdi,
Suvlarni devor kabi tik qilib qo‘ydi*.
14 Kunduzi ularni bulut orqali yetakladi,
Tun bo‘yi alanga yorug‘i orqali yetakladi*.
15 U sahrodagi qoyalarni parchaladi,
Dengiz suviday mo‘l suvni ularga berdi.
16 Qoyadan irmoqlarni chiqardi,
Suvlarni daryolarday oqizdi*.

17 Ular sahroda Xudoyi Taologa qarshi isyon ko‘tarib,
Unga qarshi gunoh qilaverdilar.
18 Ular ataylab Xudoni sinadilar*,
Ko‘ngli tusagan ovqatni talab qildilar.
19 Ular Xudoga qarshi so‘zlab, dedilar:
“Sahroda Xudo bizga dasturxon yoza olarmidi?!
20 Mana, U qoyaga urganda, suv daryo–daryo bo‘lib
oqdi,
Irmoqlar to‘lib–toshdi.
Endi U O‘z xalqiga non bera olarmikan?
Xalqini go‘sht bilan ta’minlay olarmikan?”

21 Egamiz ularning gapini eshitib,
Qattiq g‘azabga mindi.
Yoqub nasliga qarshi g‘azab alangasini purkadi,
Ha, Isroil nasliga qarshi qahrini sochdi*.
22 Ular Xudoga ishonmadilar,
Uning najotiga tayanmadilar.
23 Xudo samolardan turib amr berdi,
Osmon qopqalarini ochib yubordi.

24 Ular yesin deb, manna* yog‘dirdi,
Osmonning donini ularga berdi.
25 Odamzod farishtalar nonidan yedi,
Xudo ularga mo‘l–ko‘l taom yubordi.
26 U samolardan sharq shamolini estirdi,
Qudrati bilan janub shamoliga yo‘l ko‘rsatdi.
27 U changday mo‘l qilib, xalqiga go‘sht yog‘dirdi,
Ha, dengizdagi qumday mo‘l qilib qushlar yog‘dirdi.
28 Bularni ularning qarorgohiga yog‘dirdi,
Ularning chodirlari atrofiga tushirdi.
29 Ular to‘ygunlaricha yedilar,
Xudo ularga ko‘ngillari tusaganini berdi.
30 Biroq hali ko‘ngli tusaganiga to‘ymagan,
Luqmalari hali ularning og‘izlarida ekan,
31 Xudo g‘azabini ularga sochdi,
Ularning kuchlilarini o‘ldirdi,
Isroilning gulday yigitlarini yer tishlatdi*.

32 Shularga qaramay, ular gunoh qilaverdilar,
Xudoning mo‘jizalariga ishonmadilar.
33 Xudo ularning kunlarini bir nafasday bitirdi,
Ularni vahimaga solib, umrlarini barbod qildi.
34 Ba’zilarini Xudo o‘ldirdi,
Shundagina qolganlari Unga intildi,
Tavba qilib, yana Xudoga qaytdi.
35 Ular shunday deb esladilar:
“Ha, Xudo suyangan qoyamiz,
Bizning qutqaruvchimiz Xudoyi Taolo.”
36 Ammo Xudoga xushomad qilardilar,
Unga tillari bilan yolg‘on so‘zlashardi.
37 Yuraklarida esa Xudoga sodiq emas edilar,
Uning ahdiga bevafolik qildilar.

38 Xudo–chi, shafqat qildi,
Kechirdi ularning gunohlarini,
Qirib tashlamadi ularni.
Ko‘pincha U g‘azabini bosdi,
Butun g‘azabini sochmadi.
39 Xudo esladi: “Ular shunchaki bandalardir,
Esib, boshqa qaytib kelmas shamoldir.”

40 Sahroda Xudoga qanchalar ko‘p isyon qildilar!
Dashtu biyobonda Uni xafa qildilar.
41 Xudoni ular takror–takror sinadilar,
Isroil xalqining Muqaddas Xudosini ranjitdilar.

42 Ular Xudoning qudratini,
Ularni dushmandan qutqargan kunni esdan
chiqardilar.
43 Xudo Misrda koʻrsatgan moʻjizalarni,
Ha, Zoʻvan tekisligida* koʻrsatgan ajoyibotlarni
unutdilar.
44 Misrdagi daryolarni Xudo qonga aylantirdi,
Misrliklar irmoqlardan suv icholmay qoldi.
45 Ularni yeb bitirsin deya, pashshalar galasini
yubordi,
Yurtni vayron qilsin deya, qurbaqalar yubordi.
46 Ularning hosilini Xudo chigirtkalarga* yem qildi,
Ularning mehnati mahsulini chigirtkalarga berdi.
47 Uzumzorlarini doʻl bilan yakson qildi,
Shikamora–anjir daraxtlarini* jalada nobud etdi.
48 Ularning chorvasini doʻlga duchor qildi,
Ularning podasini yashin alangasiga berdi.
49 Kulfat elchilarini yuborganday
Xudo ularga alangali gʻazabini, qahrini,
Nafratini hamda musibatni sochdi.
50 U Misrdan gʻazabini qaytarmadi,
Ularning jonlariga shafqat qilmadi,
Ularni vaboga duchor qildi.
51 Misrning hamma toʻngʻich oʻgʻillarini nobud qildi*,
Ha, Xom avlodining* faxri,
Qut–baraka timsolini yoʻq qildi.
52 Oʻz xalqini esa Xudo qoʻyday yetaklab chiqdi,
Ularni sahro boʻylab suruvday boshlab bordi.
53 Egamiz eson–omon boshlab bordi,
Ular qoʻrqmadilar,
Ularning gʻanimlarini esa dengiz yutdi.
54 Egamiz xalqini Oʻz muqaddas yurtiga,
Oʻz kuchi bilan qoʻlga kiritgan toqqa olib keldi.
55 Oʻz xalqining oldidan boshqa xalqlarni* quvdi,
Ularning yurtini mulk qilib boʻlib berdi,
Isroil qabilalarini ularning chodirlarida oʻrnashtirdi.
56 Ular hamon Xudoyi Taoloni sinardilar,
Unga qarshi isyon koʻtarib, farmonlariga
boʻysunmadilar.
57 Otalari kabi bevafolik qilib, xoinlik qildilar,
Yaroqsiz kamonga oʻxshab ishonchsiz chiqdilar.
58 Sajdagohlari bilan ular Xudoni gʻazablantirdilar,
Butlari bilan Uning rashkini qoʻzgʻatdilar.
59 Bularni eshitganda Xudo, gʻazabga mindi,
Shundan soʻng Isroilni tamom rad etdi.

60 U Shiloʻdagi* Oʻz maskanini,
Insonlar orasida tikkan Chodirini tark etdi.
61 Dushmanga asir qilib berdi Ahd sandigʻini,
Oʻzining qudratiyu shuhrati ramzini*.
62 Oʻz xalqini U qilichga roʻpara qildi,
Gʻazabini tanlagan xalqiga sochdi.
63 Yigitlarini alanga yamlamay yutdi,
Qizlari nikoh qoʻshiqlarini aytolmay qoldi.
64 Ruhoniylari qilich tigʻidan yiqildi,
Ruhoniylarning bevalari aza tutolmay qoldi.
65 Shunda Rabbiy qoʻzgʻaldi uyqudan uygʻonganday,
Sharobdan hayqirayotgan bahodirday.
66 Dushmanlarini U tirqiratib quvdi,
Ularni abadiy sharmandalikka duchor qildi.

67 Yusuf naslini Xudo rad etdi,
Efrayim qabilasini* tanlamadi.
68 Uning oʻrniga Yahudo qabilasini*,
Oʻzi sevgan Sion togʻini tanladi*.
69 Abadiy oʻrnatgan yer kurrasi kabi,
Samolar kabi, Oʻz muqaddas maskanini qurdi.
70 Xudo Oʻz quli Dovudni tanlab oldi,
Qoʻy qoʻrasidan uni chaqirib oldi.
71 U Dovudni sovliq qoʻy, qoʻzilarga choʻponlikdan
oldi.
Oʻzining xalqi Isroilga,
Yoqub nasliga choʻpon qilib tayinladi.
72 Dovud ularga halollik bilan choʻponlik qildi,
Mohirlik bilan ularni yetaklab bordi.

78–SANO

Osif sanosi.*

1 Ey Xudo, begona xalqlar tanlagan yurtingni bosib
oldi,
Ular muqaddas Ma’badingni bulgʻadi,
Quddusni vayronaga aylantirdi.
2 Biz Sening qullaringmiz.
Ular qullaringning jasadlarini
Qushlarga yemish qilib berdilar.
Taqvodor xalqingning etini
Zamindagi yovvoyi hayvonlarga berdilar.
3 Quddus atroflarida ular qonimizni suvday toʻkdi,
Jasadlarni dafn qilishga biron zot qoldirmadi.
4 Qoʻshnilarimiz oldida masxara boʻldik,

Atrofimizdagilarga kulgi, oʻyinchoq boʻldik.

5 Ey Egam, qachongacha bizdan gʻazablanasan? To abadmi?
Qachongacha rashking alangaday yonadi?
6 Seni tan olmaydigan xalqlar uzra,
Senga sajda qilmaydigan shohliklar uzra
Gʻazabingni sochgin.
7 Ular xalqing Isroilni* yeb bitirdi,
Yurtini tashlandiq sahroga aylantirdi.

8 Bizga otalarimiz gunohlarini eslatma,
Bizga tezda shafqatingni koʻrsat,
Axir, biz oyoq osti boʻlib ketdik–ku!
9 Oʻz shuhrating haqi, bizga madad ber,
Ey najotkorimiz Xudo!
Oʻz noming haqi, bizni qutqar,
Gunohlarimizni kechir.
10 Nima uchun begona xalqlar:
“Qayerda ekan–a ularning Xudosi”, deya aytmogʻi kerak?!
Xalqlardan oʻch olganingni biz koʻraylik,
Axir, ular bizning qonimizni toʻkkan.
11 Mahbuslarning figʻonini eshitgin,
Buyuk qudratingni namoyish qilib,
Oʻlimga mahkum boʻlganlarni qutqargin.
12 Ey Rabbiy, qoʻshni xalqlar Seni haqoratlagani uchun
Ularga yetti baravar qaytargin.
13 Biz Sening xalqing, yaylovdagi suruvingmiz,
Senga to abad shukur aytarmiz,
Nasldan naslga Seni takror madh qilarmiz.

79–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. “Nilufar” kuyiga aytiladigan Osif* sanosi.*

2-3 Tingla bizni, ey Isroilning Choʻponi,
Yusuf naslini* qoʻy suruviday yetaklab chiqqan Sensan,
Karublar orasida taxt qurgansan,
Efrayim, Benyamin, Manashe* oldida nuringni soch.
Qudratingni koʻrsat, bizni qutqargani kel.

4 Ey Xudo, bizni oldingi holimizga qaytargin,
Jamoling bizga nurlarini sochsin, najot topaylik.

5 Ey Parvardigori Olam — Egamiz,
Qachongacha g‘azablanib, ibodatimizni rad etasan?
6 Ko‘z yoshlar berding bizga non o‘rniga,
Chelak to‘la ko‘z yoshlarni bizga ichirding.
7 Qo‘shnilar bizdan nafratlanishiga imkon berding,
Dushmanlarimiz bizni masxara qilmoqda.

8 Ey Parvardigori Olam, bizni oldingi holimizga
qaytargin,
Jamoling bizga nurlarini sochsin, najot topaylik.

9 Tok novdasini sug‘urganday,
Bizni Misrdan keltirding.
Begona xalqlarni quvib, bizni o‘tqazding.
10 Biz uchun tuproq tayyorlading,
Ildiz otib, yurtni to‘ldirdik.
11 Tog‘lar bizning soyamiz bilan qoplandi,
Bahaybat sadrlar ham novdalarimiz bilan qoplandi.
12 Biz shoxlarimizni dengizgacha* yoydik,
Novdalarimiz Furot daryosigacha cho‘zildi.
13 Nega endi bog‘ning devorlarini buzib tashlading?
O‘tgan–ketganlar mevalarini yulsin debmi?
14 Yovvoyi to‘ng‘izlar uni xarob qiladi,
Yovvoyi jonivorlar* undan yeb qornini to‘yg‘izadi.

15 Qayt yana bizga, ey Parvardigori Olam!
Nazar solgin, qara samodan,
Bu tok novdasini qo‘riqlagin.
16 O‘ng qo‘ling o‘tqazgan ildizni,
O‘zing o‘stirgan novdani* qo‘riqlagin.
17 G‘animlaring uzum tokingni qirqqan edi,
Uzum tokingni olovda yondirgan edi,
G‘azabli boqishingdan ular yo‘q bo‘lsin.
18 O‘zing tanlaganingga,
O‘zing uchun kuchli qilgan xalqqa* tayanch bo‘lgin.
19 Shunda biz hech qachon Sendan qaytmaymiz,
Senga sajda qilamiz, bizga hayot ato qil.

20 Ey Parvardigori Olam — Egamiz,
Bizni oldingi holimizga qaytargin,
Jamoling bizga nurlarini sochsin, najot topaylik.

80–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Soz jo‘rligida aytiladigan Osif**

sanosi.

2 Xudoga, qudratimiz manbaiga
Sevinch bilan kuylang!
Yoqubning Xudosiga shodlik ila hayqiring!
3 Qo‘shiq kuylang, doira cherting,
Xushovoz lira, arfa chaling.
4 Burg‘u chaling yangi oy shodiyonasida,
Oy to‘lganda, bayram kunimizda*.
5 Isroil uchun bu qonundir,
Yoqub Xudosining farmonidir.
6 Misr yurti ustiga bostirib borganda,
Xudo buni Isroilga* qonun qilib berdi.

Men notanish bir ovozni eshitdim:
7 “Yukni oldim yelkangizdan,
— deydi U. —
Qo‘llaringiz savatdan ozod bo‘ldi*.
8 Kulfatda Menga faryod qildingiz, sizni qutqardim,
Bulutlar orasidan sizlarga javob berdim,
Mariva suvlari bo‘yida* sizlarni sinadim.
9 Eshiting, ey xalqim, tanbeh beraman sizga,
Ey Isroil, koshkiydi quloq solsangiz Menga!
10 Orangizda begona xudolar bo‘lmasin,
Boshqa xudolarga sajda qilmanglar.
11 Men sizlarning Egangiz Xudoman,
Sizlarni Misr yurtidan Men olib chiqqanman,
Og‘zingizni katta oching, Men uni to‘ldiraman.

12 Ey xalqim, siz esa ovozimga quloq solmadingiz,
Ey Isroil, Menga itoat etishni rad etdingiz.
13 O‘z bilganingizcha yashang, deya
Yuraklaringizni o‘jarligicha qoldirdim.
14 Eh, qaniydi siz Menga quloq solsangiz,
Ey Isroil, Mening yo‘llarimdan yursangiz!
15 Tezda dushmanlaringizni bo‘ysundirardim,
Sizning g‘animlaringizga zarba berardim.
16 Men, Egangizdan nafratlanganlar
Qo‘rquvdan titrab, tiz cho‘kkan bo‘lardi,
Ularning halokati to abad davom etardi.
17 Sizlarni bug‘doyning eng yaxshisi bilan boqardim,
Qoyadan asal chiqarib, sizlarni to‘ydirardim.”

81–SANO

Osif sanosi.*

1 Xudo raislik qilar samodagi kengashida*,
U hukm chiqarar xudolar* orasida:
2 “Qachongacha sizlar nohaq hukm qilasiz?!
Fosiqqa tarafkashlik qilasiz?!
3 Zaif, yetimlarga adolat koʻrsating,
Mazlum, qashshoqlarning haqini himoya qiling.
4 Zaif, muhtojlarni qutqaring,
Fosiqning qoʻlidan ularni ozod eting.
5 Hech narsani bilmaysiz, tushunmaysiz,
Sizlar zulmatda yurasiz,
Zaminning poydevori* larzaga keladi.
6 Aytdimki: hammangiz xudolarsiz,
Xudoyi Taoloning oʻgʻillarisiz.
7 Ammo oddiy odamday oʻlib ketasiz,
Har qanday hukmdor kabi qulaysiz.”

8 Qani, ey Xudo, olamni hukm qil,
Zotan, hamma xalqlar Senikidir.

82–SANO

1 *Osif* sanosi. Qoʻshiq.*

2 Ey Xudo, sukut saqlamagin,
Jimjit boʻlma, ey Xudo, jim turmagin.
3 Dushmanlaring shovqin–suron solmoqda,
Gʻanimlaring isyon qilmoqda.
4 Ayyorlik bilan ular xalqingga fitna qiladi,
Sen ardoqlaganlarga qarshi qasd qiladi.
5 Ular aytar: “Qani, oʻsha xalqning ildizini quritaylik,
To abad unutilsin Isroilning nomi.”

6-8 Edomliklar va Ismoil avlodlari,
Moʻabliklar* va Hojar nasllari*,
Gabol*, Ommon va Omolek* xalqlari,
Tir xalqi bilan Filistiya*
Til biriktirib, fitna qiladi,
Senga qarshi ittifoq tuzadi.
9 Lut nasli* bilan ittifoq tuzib,
Ossuriya ham ularga qoʻshilgan edi.

10 Midiyonlarni jazolaganingday* ularni jazola,
Xishon daryosida Sisaro, Yobinni qirganingday*

jazola.
11 Ular En–Do‘rda halok bo‘lgandilar,
Yerga tashlangan go‘ngday bo‘lgandilar.
12 Oriv va Zayovday* qilib, ularning yo‘lboshchilarini
o‘ldir,
Barcha shahzodalarini Zevax va Zalmunoday* qilgin.
13 Axir, ular: “Xudoning o‘tloqlarini
O‘zimizniki qilib olaylik”, dedilar.

14 Ey Xudoyim, ularni xazonday sovurgin,
Shamoldagi somonday ularni uchirgin.
15-16 O‘rmonni alanga yondirganday,
Ularni bo‘ronlaring ila ta’qib qil.
Tepaliklarni olov bilan kuydirganday
Ularni dovullaring ila dahshatga sol.
17 Yuzlarini sharmandalikdan qizartir,
Toki ular, ey Egam, Senga intilsin.
18 Ular doim sharmanda bo‘lib, qo‘rquvga tushsin,
Badnom bo‘lib, yo‘q bo‘lib ketsin.
19 Ular bilsin Egamiz Sen ekaningni,
Yer yuzida buyuk hukmdor yolg‘iz Sen ekaningni.

83–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Soz jo‘rligida aytiladigan*
Ko‘rax naslining sanosi.*

2 Sening makoning ajoyibdir,
Ey Sarvari Olam!
3 Ey Egam, Sening hovlingga kirmoqni
Jonim istar, hatto orziqar.
Ey barhayot Xudo! Qalbim,
vujudim sevinch ila Senga kuylar.

4 Ey Sarvari Olam, Shohim, Xudoyim!
Qurbongohing yonida chumchuq ham bir uy topgan,
Polaponlarim uchun joy topay deya,
Qaldirg‘och ham o‘zi uchun bir in qurgan.
5 Baxtlidir Sening uyingda istiqomat qiladiganlar,
Ular doim Senga hamdu sano aytarlar.

6 Baxtlidir Sendan qudrat olgan odamlar,
Quddusni chin dildan ziyorat qilishga intiladiganlar.
7 Qaqragan soylikdan* ular o‘tar ekanlar,
Buloqlar oqa boshlar,
Ilk yomg‘ir bu yerni suv havzalariga* to‘ldirar.
8 Ular yurgan sari kuchayib borar,

Ey Xudo, ular Quddusda* huzuringda hozir bo‘lar.

9 Ey Parvardigori Olam — Egam, eshit ibodatimni,
Ey Yoqubning Xudosi, tinglagin meni.
10 Ey Xudo, qara shohga — qalqonimizga,
O‘zing moy surtib tanlaganga lutf qilgin.

11 Sening hovlilaringda o‘tgan bir kun
Afzaldir boshqa yerda o‘tgan ming kundan.
Fosiqlarning chodirlarida yashagandan ko‘ra,
Bo‘lsaydim, ey Xudoyim, Sening uyingda
darvozabon.
12 Ey Parvardigor Egam, quyosh va qalqonsan,
Sen bizga mehribonlik ko‘rsatib, shon–shuhrat ato
etasan.
Ey Egam, to‘g‘ri yurganlardan
Ne’matingni darig‘ tutmaysan.
13 Ey Sarvari Olam,
Sendan umid qilgan odam baxtlidir!

84–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Ko‘rax naslining* sanosi.*

2 Ey Egam, O‘z yurtingga marhamat ko‘rsatgansan,
Yoqub naslini yana farovonlikka erishtirgansan.
3 Xalqingning ayblarini unutgansan,
Ularning gunohlarini kechirgansan.
4 Butun g‘azabingni jilovlading,
Qahru g‘azabingdan qaytding.

5 Ey najotkorimiz Xudo,
Oldingi holimizga bizni qaytargin,
Bizga qarshi bo‘lgan g‘azabingni to‘xtatgin.
6 Sen bizdan to abad g‘azablanasanmi?
G‘azabingni nasllar osha sochaverasanmi?
7 Xalqim Menda sevinch topsin deya,
Bizga yana yangi hayot baxsh etmaysanmi?
8 Ey Egam, bizga sodiq sevgingni ko‘rsat,
Bizga najotingni ato qil.

9 Parvardigor Egamiz aytayotganiga quloq solaman,
U O‘z xalqiga, O‘z taqvodorlariga tinchlik va’da
qilayotir,
Endi ular bema’ni yo‘llariga* qaytmasin.
10 Shubhasiz, Egamizdan qo‘rqqanlarga
Uning O‘zi najot berishga tayyor turadi,

Bizning yerimizda Uning ulug‘vorligi makon topadi.

11 Sevgi va haqiqat uchrashadi,
Adolat, tinchlik bir–biri ila o‘pishadi.
12 Haqiqat zamindan o‘sib chiqadi,
Adolat samodan turib boqadi.
13 Egamiz chindan ne’matin yog‘diradi,
Yerimiz o‘z hosilini beradi.
14 Adolat Egamizning oldida yuradi,
Uning qadamlari uchun yo‘l tayyorlaydi.

85–SANO

Dovud ibodati.

1 Tinglagin, ey Egam, javob ber menga,
Men muhtoj hamda yo‘qsilman.
2 Taqvodorman, jonimni asragin,
Senga umid qilaman, men, qulingni qutqargin.
Sen mening Xudoyimsan.
3 Shafqat qilgin menga, ey Rabbiy,
Kun bo‘yi Senga iltijo qilmoqdaman.
4 Men, qulingga shodlik baxsh etgin,
Ey Rabbiy, men Senga yuragimni ochaman.
5 Sen, ey Rabbiy, yaxshisan, kechirimlisan,
Senga iltijo qilganlarga
Sodiq sevgingni ko‘rsatasan.
6 Ibodatimga quloq sol, ey Egam,
Shafqat so‘rab qilgan iltijoimga diqqat qil.
7 Og‘ir kunda Senga iltijo qilaman,
Iltijolarimga Sen javob berasan.

8 Ey Rabbiy, xudolar orasida hech qaysisi Senga
o‘xshamaydi,
Bironta buyuk ishni Seniki bilan qiyoslab bo‘lmaydi.
9 Jamiki xalqlarni Sen yaratgansan,
Ey Rabbiy, ular kelib, Senga ta’zim qiladi,
Nomingga shuhrat keltiradi.
10 Zero, Sen buyuksan, mo‘jizalar ko‘rsatasan,
Sen tanho Xudosan.
11 Yo‘lingni menga ko‘rsat, ey Egam,
Toki to‘g‘ri so‘qmoqlaringdan yuray,
Menga sobit qalb bergin,
Men Sendan qo‘rqayin.
12 Ey Rabbim Xudo, butun yuragim ila
Senga shukur aytaman!

To abad Sening nomingni ulug‘layman.
13 Menga bo‘lgan sodiq sevging g‘oyat buyukdir,
O‘liklar diyoridan* jonimni qutqargansan.

14 Ey Xudo, takabburlar menga hujum qilmoqda,
Zo‘ravonlar to‘dasi jonim payiga tushgan.
Ular Senga aslo e’tibor bermaydi.
15 Sen, ey Rabbiy, rahmdil va inoyatli,
Jahli tez chiqmaydigan Xudosan,
Sevging va sadoqating mo‘ldir.
16 Holimga boq, mehr–shafqat qil,
Men qulingman, O‘z cho‘ringning o‘g‘liman.
Menga qudratingdan ato qil,
Meni qutqargin.
17 Marhamating alomatini menga ko‘rsatgin,
Toki g‘animlarim buni ko‘rib, sharmanda bo‘lsin.
Meni qo‘llab, tasalli bergansan, ey Egam.

86–SANO

1 *Ko‘rax naslining* sanosi. Qo‘shiq.*

2 Egamiz yaratgan shahar muqaddas tog‘da* turibdi,
Yoqub naslining barcha maskanlaridan ko‘ra,
Egamiz Quddus* darvozalarini ko‘proq sevadi.
3 Ey Xudoning shahri!
Sen to‘g‘ringda Xudo ajoyib so‘zlar aytgan:
4 “Meni e’tirof etadiganlar orasida
Misrni*, Bobilni, Filistiyani,
Tir* bilan Habashistonni* ham qayd etaman.
Odamlar ularni ham: «Quddusda tug‘ilgan», deb
aytadi.”

5 Ha, Quddus haqida odamlar shu so‘zni aytadi:
“Har biri o‘sha yerda tug‘ilgan,
Xudoyi Taoloning O‘zi Quddusni mustahkam qiladi.”
6 Egamiz xalqlarning ro‘yxatini tuzib:
“Bu odam ham Quddusda tug‘ilgan”, deb yozadi.
7 Xonish qilib, raqs tushib ular:
“Hayotim manbai Sendadir”, deb aytadi.

87–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Koʻrax naslining* sanosi.*
“Qaygʻu–alam” kuyiga aytiladigan qoʻshiq. Zerax
urugʻidan boʻlgan Xamanning qasidasi.*

2 Ey Egam, najotkorim Xudo,
Kecha–kunduz faryod qilaman oldingda.
3 Ibodatim Senga yetib borsin,
Qulogʻingni dodimga tutgin.

4 Hayotim kulfatga toʻla,
Oʻzim oʻliklar diyoriga* yaqinlashganman.
5 Meni qabrga tushganlar orasida hisoblaydilar,
Bemajollarga oʻxshab qolganman.
6 Murdalar orasiga tashlanganman,
Qabrda yotgan marhumlarga oʻxshayman,
Sen meni oʻshalarday unutgansan,
Ular Sening himoyangdan mahrumdirlar.
7 Sen tashlading meni qabrning eng tubiga,
Eng zulmat, chuqur joylarga.
8 Gʻazabing ustimdan zilday bosadi,
Qahring toʻlqinlari ila meni ezasan.

9 Yaqin doʻstlarimdan meni ayirding,
Ularga meni jirkanch qilding,
Qamalib qolganman, xalos boʻla olmayman.
10 Koʻzlarim nuri gʻamdan adoyi tamom boʻldi.
Ey Egam, har kuni* Senga iltijo qilaman,
Qoʻllarimni Sen tomon choʻzaman.
11 Moʻjizalaringni marhumlarga koʻrsatasanmi?!
Murdalar turib, Senga hamdu sano aytarmikan?!
12 Sening sodiq sevging qabrda e’lon qilinarmi?!
Halokat diyorida* Sening sadoqating haqida
aytilarmi?!
13 Zulmat diyorida moʻjizalaring ma’lum boʻlarmi?!
Unutilganlar makonida* odilliging haqida
soʻylanarmi?!

14 Ey Egam, men Senga faryod qilaman,
Ibodatim sahardanoq Senga yetib boradi.
15 Ey Egam, nechun meni rad qilasan?
Nechun mendan yuz oʻgirasan?
16 Yoshligimdan buyon xastaman, oʻlim bilan yuzma–
yuzman,
Vahimalaring qarshisida umidsiz qolganman*.

17 Qahru g‘azabing meni ezib tashladi,
Vahimalaring meni adoyi tamom qildi.
18 Qahr–g‘azabing kun bo‘yi meni to‘fonday o‘rab
oladi,
Meni har tarafdan qurshab oladi.
19 Yaqin do‘stimdan, qo‘shnimdan meni ayirding,
Faqat zulmat mening sherigim bo‘lib qoldi.

88–SANO

1 *Zerax urug‘idan bo‘lgan Etxanning qasidasi*.*

2 Sening sodiq sevgingni, ey Egam, to abad
kuylayman,
Barcha nasllarga sadoqatingni o‘z og‘zim bilan e’lon
qilaman.
3 Bilaman, Sening sodiq sevging to abad
mustahkamdir,
Sening sadoqating samolarday barqarordir.
4 Sen shunday deding*:
“O‘zim tanlaganim bilan ahd qilganman.
Ha, qulim Dovudga qasamyod qilganman:
5 «Sening naslingni to abad mustahkam qilaman,
Taxtingni butun avlodlar osha o‘rnataman.»”

6 Ajoyibotlaringga, ey Egam, samolar hamdu sano
aytsin,
Muqaddas malaklar Sening sadoqatingni kuylasin.
7 Ey Egam, samolarda Senga tenglashadigani
bormikan?!
Ilohiy zotlardan* qaysi biri Senga o‘xsharkan?!
8 Ey Xudo, muqaddas malaklar davrasida*
haybatlisan,
Taxting atrofidagilarning hammasidan
qo‘rqinchlisan.
9 Ey Parvardigori Olam — Egam,
Kim Senchalik qudratli, ey Egam?!
Sadoqating atrofingni o‘ragan.
10 Asov dengizni yo‘lga solguvchi Sensan,
To‘lqinlar quturganda bosguvchi Sensan.
11 Jasadni ezganday maxluq Rahobni* ezding,
Qudratli qo‘ling bilan g‘animlaringni tarqatding.
12 Samolar Senikidir, zamin ham Senikidir,
Olamu undagi har narsa Senikidir,
Hammasini Sen mustahkam qurgansan.
13 Shimolu janubni ham Sen yaratgansan,

Tovur, Xermon tog‘lari*
Sening noming tufayli shodlikdan kuylaydi.
14 Bilaging naqadar qudratlidir!
Qo‘ling kuchli, o‘ng qo‘ling muzaffardir!
15 Adolat va haqqoniyatdir taxtingning poydevori,
Oldingda yuradi sevgi va sadoqat.
16 Baxtlidir sevinch hayqiriqlarini bilgan xalq,
Ey Egam, huzuring nurida yurgan xalq baxtlidir!
17 Sening noming tufayli ular kun bo‘yi sevinadi,
Sening adolating tufayli ular yuksaladi.
18 Zotan, Sen ularning kuchi, shuhratisan,
Qudratimiz yuksalar Sening lutf–karamingdan.
19 Ey Egam, qalqonimizni Sen tanlading,
Ey Isroil xalqining Muqaddas Xudosi,
Sen bizga shohimizni berding.

20 Qadimda Sen taqvodorlaringga vahiyda aytdingki:
“Mashhur jangchiga Men kuch berdim,
Xalq orasidan yosh yigitni yuksaltirdim.
21 Qulim Dovudni Men topdim,
Muqaddas moyimni surtib uni tanladim*.
22 Mening qo‘lim doim uni quvvatlaydi,
Bilagim uni kuchli qiladi.
23 G‘anim uni alday olmaydi,
Zolim uni qisa olmaydi.
24 Uning ko‘z o‘ngida dushmanlarini ezib tashlayman,
Uni yomon ko‘rganlarni qirib tashlayman.
25 Sadoqatim, sodiq sevgim u bilan bo‘ladi,
Men tufayli uning qudrati yuksaladi.
26 Uning qudratini dengiz uzra barqaror qilaman,
Uning hukmronligini daryolar uzra o‘rnataman.
27 U Menga aytadi: «Sen Otamsan!
Xudoyimsan, najotim qoyasi Sensan.»
28 Men uni to‘ng‘ich o‘g‘il qilib olaman*,
Yer yuzi shohlarining qudratlisi qilaman.
29 Unga bo‘lgan cheksiz sevgimda to abad sobit
turaman,
U bilan qilgan ahdimni davom ettiraman.
30 Uning naslini to abad mustahkam qilaman,
Uning taxti osmon turguncha turadi.
31 Bordi–yu, uning nasli qonunimdan yuz o‘girsa,
Mening qoidalarim bo‘yicha ular yurmasalar,
32 Agarda farmonlarimni buzsalar,
Mening amrlarimga rioya etmasalar,
33 Ularni itoatsizligi uchun xivich bilan jazolayman,

Gunohi uchun ularni tayoq bilan jazolayman.
34 Dovuddan esa sevgimni darig‘ tutmayman,
Sadoqatimga aslo xiyonat etmayman.
35 Men ahdimni buzmayman,
Aytgan so‘zimdan aslo qaytmayman.
36 Muqaddas nomim haqi ilk va so‘ng marta ont
ichdim,
Dovudni Men aslo aldamayman.
37 Uning nasli to abad davom etadi,
Uning taxti qarshimda quyosh kabi turadi.
38 Oyga, samolardagi o‘sha sodiq guvohga o‘xshab,
Taxti to abad mahkam turadi.”

39 Endi esa, ey Egam, Sen uni nafrat bilan rad etding,
O‘zing shoh qilib tanlaganingdan g‘oyat
g‘azablanding.
40 Men — O‘z quling bilan qilgan ahdingdan qaytding,
Uning tojini Sen tuproqqa qording.
41 Shaharlarining hamma devorlarini qulatding,
Qal’alarini vayronaga aylantirding.
42 Yo‘ldan o‘tayotganlarning hammasi uni taladi,
Qo‘shni xalqlarga u masxara bo‘ldi.
43 Shohimizning dushmanlarini g‘olib qilding,
Uning hamma g‘animlarini sevintirding.
44 Qilichining damini qaytarding,
Jangda unga Sen madad bermading.
45 Uning ulug‘vorligiga Sen chek qo‘yding,
Taxtini yerga uloqtirib yubording.
46 Yoshlik kunlarini qisqartirding,
Uni sharmandayu sharmisor qilding.

47 Ey Egam, bu qachongacha davom etadi?
O‘zingni bizdan to abad yashirasanmi?
Qachongacha g‘azabing otash kabi yonadi?
48 Esingda tut, hayotim naqadar qisqa,
Ne uchun insonni behuda yaratding?!
49 Qaysi inson o‘limni ko‘rmas ekan?!
Kim o‘liklar diyori* changalidan omon qolar ekan?!
50 Ey Rabbiy, qani oldingi buyuk sevging?
Sadoqating ila buni Dovudga va’da bergan eding–ku!
51 Ey Rabbiy, men, quling, qanchalar masxara
bo‘lganimni* yodingda tut.
Hamma xalqlarning haqoratlarini bag‘rimda ko‘tarib
yuribman–ku!
52 Ey Egam, dushmanlaring tanlagan shohingni

masxaralaganini,
Uning har bir qadamini tahqir etganlarini yodda tut!

53 Egamizga to abad olqishlar bo‘lsin!

Omin! Omin!

89–SANO

1 *Xudo odami Musoning ibodati.*

2 Ey Rabbiy, nasllar osha
Sen panohimiz bo‘lgan eding.
3 Tog‘lar hali paydo bo‘lmasdan oldin,
Yeru olamni yaratmasingdan oldin,
Abadulabad Sen Xudosan.
4 Sen insonni tuproqqa qaytarasan*,
“Qaytinglar tuproqqa, ey bandalar”, deb aytasan.
5 Ming yil Sening nazaringda bir kundaydir,
Qisqa bir tun vaqtidaydir.

6 Sen odamlarni supurib tashlaysan,
Ular go‘yo tushga o‘xshaydi.
Ular tongda ungan yangi maysa kabidir.
Tongda maysa yangidan o‘sib chiqsa ham
Oqshomda so‘lib, xazon bo‘ladi.

7 Sening g‘azabingdan adoyi tamom bo‘ldik,
Qahringdan biz vahimaga tushdik.
8 Gunohlarimizni Sen oldingga keltirding,
Yashirin gunohlarimizni nurlaring yoritib turadi.

9 Kunlarimiz Sening g‘azabing ostida o‘tadi,
Yillarimiz bir oh kabi, tez nihoyasiga yetadi.
10 Kunlarimiz yetmish yil ekan,
Agar bardam bo‘lsak, sakson yil ekan.
Eng ajoyib yillar zahmat, jafo bilan kecharkan,
Umrimiz tez o‘tar, o‘zimiz uchib ketarmiz.

11 Sening g‘azabing qudratini kim bila olar?!
Qahring, O‘zingga loyiq qo‘rquv kabi buyukdir.
12 Umrimiz kunlarini sanashni bizga o‘rgatgin,
Toki biz dono qalbga ega bo‘laylik.

13 Kel, ey Egam! Qachongacha kutamiz?!
O‘z qullaringga shafqat qilgin!
14 Saharda sodiq sevging bilan bizni qondirgin,
Umrimiz bo‘yi qo‘shiq aytib, xursand bo‘laylik.

15 Kulfatlar koʻrdik koʻp kunlar,
Bizni qaygʻuga giriftor qilding qancha yillar,
Oʻsha kunlar evaziga bizni xursand qil.
16 Biz, Oʻz qullaringga qudratli ishlaringni koʻrsatgin,
Bizning naslimiz ulugʻvorligingni koʻrsin.
17 Ey Rabbimiz Xudo, lutf–karaming bizga yor boʻlsin,
Qilgan ishimiz baroridan kelsin,
Ha, ishlarimizga baraka bergin!

90–SANO

1 Xudoyi Taolo panohida yashaydiganlar
Qodir Xudo soyasida orom topar.
2 Men Egamga shunday deyman:
“Sen panohimsan, qal’amsan,
Men umid bogʻlagan Xudoyimsan.”

3 Albatta U xalos etar seni ovchining tuzogʻidan,
Xalos etar seni qirgʻin keltiruvchi vabodan.
4 Seni U qanotlari ostiga olar,
Uning panohida bexatar boʻlasan,
Sadoqati bilan senga qalqon, devor boʻlar.
5 Shunda qoʻrqmaysan tunning vahimasidan,
Qoʻrqmaysan kunduzi uchgan oʻqdan,
6 Zulmatda bildirmay keladigan vabodan,
Qoq peshinda qirgʻin keltiruvchi oʻlatdan.

7 Mingtasi chap yoningda yiqilib qoladi,
Oʻn mingtasi oʻng yoningda yiqilib qoladi,
Ammo bu kulfatlar senga yaqin kelmaydi.
8 Faqat koʻzlaringni och, shunda koʻrasan
Fosiqning qanday jazo olganini.

9-10 Agar Egamizni panohing qilsang,
Boshingga biron baxtsizlik kelmas.
Xudoyi Taoloni qoʻrgʻoning qilsang,
Biron falokat chodiringga yoʻlamas.
11 U sen toʻgʻringda farishtalariga amr beradi,
Farishtalar hamma yoʻllaringni qoʻriqlaydi.
12 Oyogʻing toshga qoqilib ketmasin deya,
Farishtalar qoʻllarida seni koʻtarib boradi.
13 Sher va zaharli ilon* ustidan bosib oʻtasan,
Yirtqich sher, ilonni oyogʻing bilan ezasan.

14 Egamiz shunday deydi:
“U Meni yaxshi koʻrgani uchun

Men uni qutqaraman.
Meni bilgani uchun
Men uni himoya qilaman.
15 U iltijo qilganda Men javob beraman,
Og‘ir kunlarida u bilan birga bo‘laman,
Uni qutqarib, unga izzat ko‘rsataman.
16 Uzoq umr berib, uni mamnun qilaman,
Unga najot beraman.”

91–SANO

1 *Sano. Shabbat kuni aytilgan qo‘shiq.*

2 Ey Egam, Senga shukur aytmoq yaxshidir,
Ey Xudoyi Taolo, Senga hamdu sano kuylamoq
yaxshidir.
3 E’lon qilmoq yaxshidir subhidamda sodiq
sevgingni,
E’lon qilmoq yaxshidir kechalari sadoqatingni.
4 Yaxshidir aytmoq bularni musiqa chalib
O‘n torli asbobda, lirada, arfa jo‘rligida!
5 Ey Egam, qudratli ishlaringdan men shodman,
Qilgan ishlaringdan xursand bo‘lib kuylayman.

6 Ey Egam, ishlaring naqadar buyukdir!
O‘ylaring juda ham terandir!
7 Aqlsiz kimsa buni bila olmaydi,
Ahmoq kimsa buni tushuna olmaydi:
8 Garchi fosiqlar maysa kabi unib chiqsa ham,
Badkirdorlar gullab–yashnasa ham,
Ular to abad yo‘q bo‘ladi.
9 Sen–chi, ey Egam, to abad ulug‘vorsan.
10 Ey Egam, dushmanlaring albatta yo‘q bo‘ladi,
Ular shubhasiz halok bo‘ladi.
Badkirdorlarning hammasi tarqalib ketadi.
11 Meni yovvoyi buqaday kuchli qilding,
Qudrating bilan menga qaytadan kuch ato etding*.
12 Dushmanlarim mag‘lubiyatin ko‘zlarim ko‘rdi,
Badkirdorlar zavolin quloqlarim eshitdi.

13 Solihlar palma daraxtiday gullab–yashnaydi,
Lubnondagi sadr daraxtiday* yuksaladi.
14 Ular Egamizning uyiga o‘tqazilgan,
Xudoyimizning hovlisida ular yashnaydi.
15 Keksalikda ham hamon hosil beradi,
Yam–yashil, navqiron bo‘lib turaveradi.

16 Ular birgalikda shunday deb e’lon qiladi:
“Egamiz odildir! U mening suyangan qoyamdir,
Unda nohaqlik yo‘qdir.”

92–SANO

1 Egamiz Shohdir, U ulug‘vorlikka burkangan,
Ulug‘vorlikka burkanib, qudrat bilan qurollangan.
Olamni mustahkam o‘rnatgan, olam aslo tebranmas.

2 Sening taxting qaror topgan azaldan,
Sen O‘zing mavjudsan azaldan.
3 Dengizlar guvullamoqda, ey Egam,
Dengizlar hayqirmoqda, ey Egam,
Dengizlar to‘lqinlarini ko‘tarmoqda.
4 Yuksakdagi Egamiz dengiz to‘lqinlaridan ham
qudratliroqdir,
Bahaybat suvlarning pishqirishidan ham
qudratliroqdir.
5 Sening farmonlaring sobitdir,
Uyingga muqaddaslik ziynatdir
Abadulabad, ey Egam!

93–SANO

1 Ey Egam, Sen qasoskor Xudosan,
Ey qasoskor Xudo, nuringni soch!
2 Qani, bo‘l, ey yer yuzini hukm etguvchi,
Mag‘rurlarning jazosini ber.
3 Qachongacha fosiqlar tantana qilar?
Ey Egam, qachongacha?

4 Og‘izlaridan balandparvoz so‘zlar otilib chiqyapti–
ku!
Hamma badkirdorlar maqtanyapti–ku!
5 Ey Egam, ular xalqingni ezyapti,
O‘zing tanlagan elatingga zulm qilyapti.
6 Beva, musofirni ular o‘ldiryapti,
Yetimlarni yo‘q qilyapti.
7 Ular aytyapti: “Egamiz ko‘rmas,
Yoqubning Xudosi e’tibor bermas.”

8 Tushunib oling, ey xalq orasidagi tentaklar.
Qachon sizlarga aql kirar, ey ahmoqlar?!
9 Quloqni yaratgan eshitmaydimi?!
Ko‘zni ato etgan ko‘rmaydimi?!
10 Xalqlarga tanbeh beruvchi jazolamaydimi?!

Uning O‘zi insonga o‘rgatadi–ku!
11 Egamiz insonning niyatini anglaydi,
Niyatlarimiz behudaligini biladi.

12 Ey Egam, baxtlidir Sening tanbehingni olganlar,
Baxtlidir Sening qonuningdan o‘rganuvchilar.
13 Yomon kunlardan ularni Sen omon saqlaysan.
Fosiq uchun chuqur qazilguncha ular omon
bo‘ladilar.
14 Ey Egam, O‘z xalqingni tark etmaysan,
O‘zing tanlagan elatingni tashlab qo‘ymaysan.
15 Hukmning asosi yana adolat bo‘ladi,
Jamiki pokdillar adolatni qo‘llab–quvatlaydi.

16 Fosiqlardan kim meni himoya qiladi?
Badkirdorlarga qarshi kim men tomon bo‘ladi?
17 Ey Egam, agarda Sen menga yordam
bermaganingda,
Mening jonim tezda o‘lim sukunatiga cho‘kardi.
18 “Oyoqlarim qoqiladi”, deb o‘ylaganimda,
Ey Egam, sodiq sevging meni qo‘lladi.
19 Ichim xavotirga to‘lib ketganda,
Sen bergan tasalli menga quvonch keltirdi.

20 Zolim hukmdorlar Xudoga sherik bo‘larmi?!
Axir, ular farmonlari bilan kulfat keltiradi–ku!
21 Ular solihlarga qarshi birlashadi,
Gunohsizlarni o‘limga mahkum etadi.
22 Ammo Egam mening qal’amdir,
Mening panoh qoyam Xudodir.
23 Fosiqligi uchun Egamiz ularni qirib tashlaydi,
Gunohlari uchun jazosini beradi.
Ha, Egamiz Xudo ularni ildizidan quritadi.

94–SANO

1 Kelinglar, sevinch ila Egamizni kuylaylik,
Najotimiz Qoyasiga shodlik ila hayqiraylik.
2 Shukrona aytib, Uning huzuriga boraylik,
Unga qo‘shiqlar aytib, shodlikdan hayqiraylik.
3 Zotan, Egamiz ulug‘ Xudodir,
Jamiki xudolar ustidan ulug‘ Shohdir.
4 Zaminning eng chuqur joylari Uning qo‘lidadir,
Tog‘larning cho‘qqilari ham Unikidir.
5 Unikidir O‘zi yaratgan dengiz ham,
Qo‘li barpo qilgan quruq yer ham.

6 Kelinglar, ta’zim qilib, sajda etaylik,
Yaratgan Egamiz oldida tiz cho‘kaylik.
7 U Xudoyimizdir, biz Uning yaylovidagi xalqmiz,
Biz Uning qo‘l ostidagi qo‘ylarmiz.

Egamiz shunday deydi:
“Qaniydi, bugun Mening ovozimga quloq solsangiz!
8 Otalaringiz kabi tosh yurak bo‘lmanglar.
Marivada, sahrodagi Massaxda* ular qilgan ishni
qilmanglar.
9 Otalaringiz Mening ishlarimni ko‘rsa ham,
U yerda Meni sinab ko‘rdilar.
10 Qirq yil u nasldan nafratlanib*,
Shunday dedim: «Bu xalq Mendan yuz o‘giradi,
Amrlarimga bo‘ysunishdan bosh tortadi.»
11 Shu bois g‘azablanib, ont ichdim:
«Ular farog‘at diyorimga kirmaydi», dedim*.”

95–SANO

1 Ey olam, Egamizni tarannum eting!
Egamizga yangi bir qo‘shiq ayting.
2 Egamizni tarannum eting,
Unga olqishlar bo‘lsin,
Uning bergan najotidan har kuni so‘ylang.
3 E’lon qiling elatlar orasida Uning shuhratini,
Jamiki xalqlar orasida Uning ajoyibotlarini.
4 Egamiz buyukdir, ko‘p maqtovga loyiqdir,
Jamiki xudolardan U izzatlidir.
5 Zotan, xalqlarning hamma xudolari butlardir,
Egamiz esa samolarni yaratgandir.
6 Shuhratu ulug‘vorlik Uning huzuridadir,
Qudratu go‘zallik Uning muqaddas maskanidadir.

7 Egamizga hamdlar ayting, ey zamin xalqlari!
Egamizning qudratiyu shuhratiga hamdlar o‘qing!
8 Egamizning sharafiga sanolar ayting!
Nazrlar keltirib, Uning hovlisiga kiring!
9 Muqaddas ulug‘vorlikka burkangan Egamizga sajda
qiling!*
Ey zamin ahli, Uning oldida titrab turing!
10 Elatlar orasida aytingki: “Egamiz Shohdir!
Olam mustahkam o‘rnashgan, hech qachon
tebranmaydi,
U xalqlarni haqqoniy hukm qilar.”

11 Samolar shod bo‘lsin, zamin quvonsin,
Dengizu undagi hamma jonzot guvullasin.
12 Dalalaru undagi har narsa sevinch ila jo‘shsin,
O‘rmondagi hamma daraxt shodlikdan qo‘shiq
aytsin.
13 Egamiz oldida ular qo‘shiq aytar, ana, U kelayotir,
Zaminni boshqarmoq uchun U kelayotir,
Olamni adolat ila U boshqarar,
Xalqlarni O‘z haqiqati ila boshqarar.

96–SANO

1 Egamiz Shohdir, zamin quvonsin,
Dengiz ortidagi hamma yurtlar shod bo‘lsin.
2 Bulutlar, zimziyo zulmat Uning atrofini o‘ragan,
Adolatu haqiqat Uning taxtiga poydevor bo‘lgan.
3 Egamiz olovini O‘zidan oldin yuboradi,
Olovi har tarafdagi dushmanlarni yutadi.
4 Chaqmoqlari olamni yoritadi,
Zamin buni ko‘rib titraydi.
5 Butun olamning Rabbiysi oldida,
Egamiz oldida tog‘lar mumday eriydi.

6 Samolar e’lon qiladi Uning adolatini,
Jamiki xalqlar ko‘radi Uning ulug‘vorligini.
7 Butlarga sajda qiluvchilar,
Behuda sanamlari ila maqtanuvchilar
Sharmanda bo‘ladi.
Barcha xudolar Egamizga ta’zim qiladi.

8 Ey Egam! Sening adolatingdan
Yahudo shaharlari shod bo‘ladi,
Quddus* eshitib, quvonadi.
9 Ey Egam, yer yuzidagi buyuk hukmdor Sensan,
Hamma xudolardan Sen yuksalgansan.

10 Ey Egamizni sevganlar!
Yomonlikdan nafratlaning.
U taqvodorlarining jonlarini O‘zi asraydi,
Fosiqlarning qo‘lidan ularni xalos etadi.
11 Solihlarga nur sochilgay,
Yuragi poklar uzra shodlik yoyilgay.
12 Ey solihlar, Egamiz tufayli shodlaning,
Uning muqaddas nomini olqishlang!

97–SANO

Sano.

1 Yangi bir qoʻshiq ayting Egamizga!
Axir, U ajoyib ishlar qildi.
Oʻzining oʻng qoʻli, muqaddas bilagi bilan zafar
qozondi.
2 Egamiz zafarining dongʻini taratdi,
Xalqlarga najotini namoyon qildi.
3 Isroil xalqiga boʻlgan sevgisiyu sadoqatini yodida
tutdi.
Yerning toʻrt tomoni Xudoyimiz bergan najotni
koʻrdi.

4 Ey zamin ahli, Egamizni olqishlab, xitob qiling,
Sevinchli kuy–qoʻshiqlar ila Unga xitob qiling.
5 Lira chalib, Egamizga hamdu sano kuylang,
Lira chalib, qoʻshiqlar ayting.
6 Karnayu burgʻularni chaling,
Shohni — Egamizni olqishlab, xitob qiling.

7 Joʻsh ursin dengizu undagi hamma jonzot,
Joʻsh ursin olamu unda yashovchi hamma maxluqot.
8 Egamiz oldida daryolar qarsak chalsin,
Qirlar birga shodlanib qoʻshiq aytsin.
9 Zotan, Egamiz yerda hukm etgani kelmoqda,
U olamni toʻgʻri hukm etadi,
Adolat ila xalqlarni hukm qiladi.

98–SANO

1 Egamiz Shohdir, xalqlar titrasin!
Karublar orasida taxt qurgan U!
Zamin larzaga kelsin!
2 Egamiz Quddusda* ulugʻdir,
Jamiki xalqlar uzra yuksakdadir.
3 Uning nomi ulugʻ, haybatlidir!
Hamma Uni madh qilsin,
Zero, muqaddasdir U!

4 Shoh qudratlidir, adolatparvardir,
U odillikni oʻrnatgan!
Yoqub nasli orasida
Adolatli va toʻgʻri hukm chiqargan!
5 Egamiz Xudoni ulugʻlanglar!
Uning poyiga sajda qilinglar.

Zero, muqaddasdir U!

6 Muso va Horun Uning ruhoniylaridan edi,
Shomuil ham Egamizga iltijo qilganlardan biri edi.
Ular Egamizga iltijo qildi, U javob berdi.
7 Ustun shaklidagi bulut ichra ular bilan gaplashdi,
Ular Egamizning farmonlariga
Hamda U bergan qonunlariga rioya qilardi.

8 Ularga javob berding, ey Egamiz Xudo!
Sen ularni kechiruvchi Xudo bo‘lding,
Ularni jazolading yomon yo‘ldan ketganlarida.

9 Ulug‘langlar Egamiz Xudoni!
Sajda qiling Unga muqaddas tog‘ida*.
Zero, muqaddasdir Egamiz Xudo!

99–SANO

Shukronalik sanosi.

1 Ey zamin ahli, Egamizga shodlik ila hayqiring,
2 Xursand bo‘lib Egamizga sajda qiling,
Shodlanib, qo‘shiq aytib, Uning huzuriga keling.

3 Bilingki, Egamiz Xudodir,
Bizni yaratgan Udir, biz Unikimiz.
Biz Uning xalqimiz, yaylovidagi qo‘ylarimiz.

4 Shukrona aytib, darvozalaridan kiring,
Hamdu sano aytib, hovlilariga kiring.
Shukrona aytib, Uning nomini olqishlang!

5 Egamiz yaxshidir,
Uning sodiq sevgisi abadiy davom etadi,
Sadoqati esa barcha nasllarga o‘tadi.

100–SANO

Dovud sanosi.

1 Sadoqatingni, adolatingni kuylayman,
Seni, ey Egam, tarannum etaman.
2 Benuqson hayot kechirishni o‘rganaman,
Qachon bunga erishaman?

Pok yurak ila o‘z uyimda umr kechiraman.
3 Hech qanday yovuzlikka yo‘l qo‘ymayman.
Qing‘ir ishlardan nafratlanaman,

Men ularga hech qo‘shilmayman.
4 Ters ishlarni rad qilaman,
Yomonlik mendan uzoq bo‘ladi.
5 Do‘sti ortidan g‘iybat qiladiganni yo‘q qilaman,
Takabburlik bilan qaraydigan ko‘zlarga,
Mag‘rur yurakka aslo toqat qilmayman.

6 Yonimda istiqomat qilsinlar deya,
Yurtimning sodiq odamlariga xayrixoh bo‘laman.
To‘g‘ri yo‘ldan yuradigan inson
Menga xizmat qiladi.
7 Hiylagarlar mening saroyimda qolmaydi,
Yolg‘onchilar qarshimda turmaydi.
8 Har saharda yurtdagi fosiqlarni qiraman,
Ey Egam, Sening shahringdan badkirdorlarni yo‘q
qilaman.

101–SANO

1 *Dard–alamga botganda, arzini Egamiz oldiga
to‘kkan g‘aribning ibodati.*

2 Eshitgin ibodatimni, ey Egam,
Yetib borsin Senga ohu nolam.
3 Kulfatda qolganimda mendan yuz o‘girma,
Menga quloq tutgin.
Chaqirganimda menga tez javob bergin.
4 Umrim tutunday o‘tib ketdi,
Isitmadan butun tanam yonib ketyapti.
5 Yuragim qurigan o‘tday xazon bo‘ldi,
Biror narsa yeyishga istak yo‘qoldi.
6 Faryod qilib oh–nola chekaman,
Shu bois etim suyagimga yopishgan.
7 Dashtdagi qushga o‘xshayman,
Vayronadagi boyo‘g‘li kabidirman.
8 Bedor bo‘lib yotaman,
Tomda yolg‘iz qolgan qushga o‘xshayman.
9 G‘animlarim doimo meni haqorat qiladi,
Meni masxaralovchilar
Ismimni la’nat o‘qish uchun ishlatadi.
10 Kulni non kabi yemoqdaman,
Ichimligimga ko‘z yoshlarimni qo‘shmoqdaman.
11 Sening qahru g‘azabing tufayli shunday qilyapman,
Axir, meni ko‘tarib, bir yonga uloqtirding.
12 Oqshomgi ko‘lankaga o‘xshaydi umrim,
Qurigan maysaday bo‘lib qoldim.

13 Sen esa, ey Egam, to abad o‘tirasan taxtingda,
Nasllar osha Sening noming davom etar!
14 Qo‘zg‘alib, shafqat ko‘rsatasan Quddusga*,
Unga marhamat ko‘rsatish vaqti keldi,
Belgilangan vaqti–soati yetib keldi.
15 Uning toshlari ham Sening qullaring uchun
qimmatbahodir,
Quddusning hatto tuprog‘iga ham mehribonlik
qilamiz.

16 Xalqlar Egamizdan qo‘rqadi,
Uning shuhratidan yer yuzi shohlari titraydi.
17 Zero, Egamiz Quddusni barpo qiladi,
O‘zining shuhrati ila zohir bo‘ladi.
18 Yo‘qsillarning ibodatiga U e’tibor beradi,
Ularning iltijolarini rad etmaydi.

19 Hali tug‘ilmagan xalq ham Egamizga hamdu sano
aytsin,
Kelajak nasl uchun bu yozib qo‘yilsin:
20-21 Asirlarning nolasiga quloq solay deb,
Egamiz yuksakdagi muqaddas makonidan qaradi.
O‘limga mahkum bo‘lganlarni qutqaray deb,
U osmondan zaminga nazar tashladi.
22 Shu bois Egamizning dong‘i Quddusda e’lon
qilinsin,
Unga Sionda hamdu sano aytilsin.
23 Egamizga birga sajda qilgani
Xalqlaru shohliklar yig‘iladi.

24 Hali yosh paytimda Egam meni zaif qildi,
Kunlarimni Uning O‘zi qisqartirdi.
25 Unga faryod qildim: “Ey Xudoyim,
Yosh umrimni xazon qilmagin,
Barcha nasllar osha Sen doimo borsan.
26 Azalda zaminning poydevorini* Sen qo‘ygansan,
Samolarni O‘z qo‘llaring ila yaratgansan.
27 Ular yo‘q bo‘lib ketar, Sen turaverasan,
Yeru osmon kiyim kabi eskirib ketadi,
To‘zib ketgan kiyimday ularni almashtirasan,
Hammasini tashlab yuborasan.
28 Sen esa hech o‘zgarmassan,
Sen to abad yashaysan.
29 Qullaringning farzandlari xavfsiz yashar,
Ularning nasli Sening huzuringda barqaror bo‘lar.”

102–SANO

Dovud sanosi.

1 Egamizni olqishlagin, ey jonim,
Uning muqaddas nomini olqishla, ey vujudim!
2 Egamizni olqishlagin, ey jonim,
Uning qilgan hamma yaxshiliklarini unutmagin!
3 Hamma gunohlarimni U kechiradi,
Barcha xastaliklarimga U shifo beradi.
4 Meni qabrdan U qutqaradi,
Sevgi, shafqat ila menga toj kiygizadi.
5 Hayotimni* ne’mat ila U qondiradi,
Yoshligim burgutning kuchiday yangilanadi.

6 Egamiz to‘g‘ri ish qiladi,
Mazlumlarga adolat qiladi.
7 O‘z yo‘llarini U Musoga ma’lum qilgan,
Ishlarini Isroil xalqiga namoyon etgan.
8 Egamiz rahmdil, inoyatlidir,
Jahli tez chiqmaydi, sodiq sevgisi mo‘ldir.
9 U doimo bizni ayblamaydi,
Yoki to abad g‘azabini sochmaydi.
10 Bizni U gunohlarimizga qarab jazolamas,
Yomonliklarimizga qarab qaytarmas.
11 Samolar zamindan naqadar balanddir!
Egamizning sodiq sevgisi ham
Undan qo‘rqqanlarga shunday yuksakdir!
12 Sharq g‘arbdan qanchalik uzoq bo‘lsa,
Gunohlarimizni bizdan shu qadar uzoq qiladi.
13 Ota bolalariga shafqat qilganday,
Egamiz O‘zidan qo‘rqqanlarga rahm qiladi.
14 Biz qanday yasalganimizni U biladi,
Biz tuproq ekanimizni* U yodida tutadi.

15 Insonmiz, maysaga o‘xshar umrimiz,
Dasht guliga o‘xshab gullaymiz.
16 Shamol esar, maysa yo‘q bo‘lar,
Uni o‘z joyi eslamay qo‘yar.
17 Ammo Egamizning sodiq sevgisi
Abadulabad Undan qo‘rqqanlar bilan birgadir!
Uning sodiqligi esa ularning nasliga o‘tadi.
18 Ha, Egamiz sodiq qoladi Uning ahdiga rioya
qilganlarga,
Uning amrlariga sadoqat ila itoat etganlarga.

19 Egamiz taxtini oʻrnatgandir samoda,
Uning shohligi hukmrondir hamma yerda.
20 Egamizni olqishlang, ey Uning farishtalari,
Uning amrini ijro qiluvchi bahodirlar,
Uning soʻzlariga itoat etuvchilar!
21 Ey Egamizning samoviy lashkarlari!
Uning irodasini ijro etuvchi xizmatkorlari!
Egamizni olqishlang!
22 Ey Egamiz yaratganlarning hammasi!
U hukmron boʻlgan har bir joyda
Uni olqishlanglar!
Ey jonim! Egamizni olqishla!

103–SANO

1 Egamni olqishla, ey jonim.

Ey Egam Xudo! Sen naqadar buyuksan,
Shuhratu ulugʻvorlikka burkangansan.
2 Yopinchiqqa oʻralganday nurga chulgʻangansan,
Samolarni bir chodir kabi yoygansan.
3 Osmondagi suvlar* uzra dargohingni qurgansan,
Bulutlarni jang aravasi qilasan,
Shamol qanotlarini minib ketasan.
4 Shamollarni Oʻzingga xabarchilar qilasan,
Lovullagan olovni xizmatkorlaring etasan.

5 Hech qachon tebranmasin deya,
Sen zaminning poydevorini* qoʻygansan,
6 Zaminni libosga oʻraganday,
Tubsiz suvlar ila oʻragan eding,
Hatto togʻlar choʻqqisini suvlar koʻmgan.
7 Sening tahdidlaringdan suvlar chekinar,
Sen gumburlatgan sadodan ular qochar.
8 Suvlar togʻlar ustidan, vodiy boʻylab oqar
Sen ular uchun tayin etgan joyga.
9 Bu suvlar toshmasin deb,
Yana yer yuzini qayta qoplamasin deb,
Sen chegara qoʻygansan!

10 Buloqlarni toshirding Sen soyliklardan,
Buloqlar oqib kelar togʻlar orasidan.
11 Jamiki yovvoyi hayvonlarni buloqlar sugʻoradi,
Yovvoyi eshaklar tashnaligini qondiradi.
12 Oqar suvlar boʻyida qushlar in quradi,
Shoxlar orasidan ular sayraydi.

13 Tog‘larni sug‘orasan yuqoridagi dargohingdan.
Zamin to‘la Sen o‘stirgan meva bilan.

14 Chorva uchun Sen o‘t–o‘lan o‘stirasan,
Inson foydalansin deb, ekinlar o‘stirgansan,
Yeguligini tuproqdan olsin, deysan.
15 Sen berasan inson ko‘nglini chog‘ qiluvchi
sharobni,
Yuzga jilo beruvchi zaytun moyini,
Inson hayotiga quvvat beruvchi nonni.
16 Ey Egam, Sening daraxtlaring,
Ha, O‘zing Lubnonda ekkan sadr daraxtlaring*
Suvga yaxshi qonadi.
17 Qushlar daraxtlarda uya quradi,
Sarv daraxtida laylak uy qiladi.
18 Tog‘ echkisi baland tog‘larda yashar,
Bo‘rsiqlar esa qoyalarda uya qurar.
19 Vaqtni belgilasin deb, oyni yaratding,
Quyosh ham biladi qachon botishin.
20 Qorong‘ilik cho‘ktirganingda, tun bo‘lar,
O‘rmondagi bor hayvon kezgani chiqar.
21 Sherlar o‘lja axtarib bo‘kirar,
O‘z rizq–ro‘zini, ey Xudo, Sendan izlar.
22 Quyosh chiqar, ular ortga qaytarlar,
O‘zlarining inlarida yotarlar.
23 Odamlar o‘z ishlariga chiqarlar,
Oqshomgacha yumushlari ila band bo‘larlar.

24 Ey Egam, ishlaring g‘oyat turli–tumandir!
Hammasini donolik ila yaratgansan,
Zamin Sen yaratganlaring ila to‘ladir.
25 Mana, buyuk, bepoyon dengiz,
Son–sanoqsiz yaratilganlar bilan to‘la,
Katta–kichik jonivorlar bor.
26 Kemalar dengizlarda qatnaydi.
Suvlarda o‘ynasin deya,
O‘sha maxluq Levitanni* yaratgansan.

27 Ey Egam! O‘z vaqtida rizqimizni bersin deya,
Ularning hammasi Senga ko‘z tikadi.
28 Ularga rizqini berganingda, yig‘ib oladi,
Qo‘llaringni ochganingda, ular yeb to‘yadi.
29 Yuzingni yashirganingda esa ular vahimaga
tushadi,
Jonlarini olganingda, o‘lib, tuproqqa qaytadi.

30 Ruhingni* yuborganingda ular yaratiladi,
Yer yuziga yangidan hayot berasan.

31 Egamizning shuhrati to abad davom etsin,
Egamiz O‘z yaratganlaridan xursand bo‘lsin.
32 Yerga U boqqanda, yer titrar,
Tog‘larga tekkanda, tog‘lar tutun chiqarar.
33 Hayot ekanman, Egamni tarannum etaman,
Bor ekanman, Xudoyimga hamdu sano kuylayman.
34 U haqidagi o‘ylarim xush kelsin Unga,
Zotan, sevinaman men Egam tufayli.
35 Yer yuzidan yo‘q bo‘lsin gunohkorlar,
Bo‘lmasin boshqa endi fosiqlar.

Egamni olqishla, ey jonim!
Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin!

104–SANO

1 Egamizga shukur ayting, Unga sajda qiling,
Boshqa xalqlar orasida Uning ishlarini bildiring.
2 Tarannum qilib Uni, hamdu sano ila qo‘shiq ayting,
Uning jamiki ajoyib ishlarini so‘zlab bering.
3 Egamizning muqaddas nomi ila faxrlaning,
Egamizga yuz burganlarning qalbi shodlikka to‘lsin.
4 Qudratli Egamizga yuz buring!
Uning huzurida bo‘lishga intiling.
5-6 Ey sizlar, Egamizning quli Ibrohim nasli,
Ey Yoqub o‘g‘illari — Egamizning tanlaganlari,
Egamiz qilgan ajoyibotlarini esda tuting,
Uning mo‘jizalarini, chiqargan hukmlarini unutmang.

7 U Egamiz Xudodir,
U butun yer yuzini adolatli hukm qiladi.
8 O‘z ahdini U to abad yoddan chiqarmas,
Minglab nasllarga bergan va’dasini unutmas.
9 Rioya qilar U Ibrohim bilan qilgan ahdiga,
Is’hoqqa qasam ichib bergan va’dasiga.
10 Yoqub uchun bu ahdni bir qonun qildi,
Ha, Isroil uchun abadiy bir ahd qildi.
11 Aytdiki*: “Kan’on yurtini senga beraman,
Uni o‘zingga abadiy mulk qilib olasan.”

12 O‘sha vaqtda ularning soni kam edi,
Ha, juda kamchilik edilar.
Ular bu yurtga kelgindi edi.

13 Kezardi bir xalq orasidan boshqasiga,
Bir shohlikdan boshqa yurtga.
14 Egamiz hech kimga ularni ezishlariga yo‘l
qo‘ymadi,
Ularni deb shohlarga tanbeh berdi.
15 Aytdiki: “Men tanlaganlarga tegmanglar,
Payg‘ambarlarimga* zarar keltirmanglar.”

16 Kan’on yurti ustiga Egamiz ocharchilik yubordi,
Bitta qoldirmay yeguliklarga qirg‘in keltirdi.
17 Ulardan oldin odam yubordi,
Ha, Yusuf* qul kabi sotildi.
18 Uning oyoqlariga zanjir urildi,
Bo‘ynidan temir halqa o‘tkazildi.
19 Yusufning so‘zlari bajo bo‘ladigan vaqt kelguncha,
Egamizning kalomi Yusufni sinadi.
20 Misr shohi odam yuborib, Yusufni qutqardi,
Ellarning hukmdori uni ozod qildi.
21 Yusufni shoh saroyining boshqaruvchisi qilib tayin
etdi,
Jamiki mulkining hokimi qildi.
22 Xohlasa saroydagi a’yonlarimni zanjirband qilsin*,
Maslahatchilarimga donolik ila o‘git bersin deb,
shunday qildi.

23 So‘ngra Isroil Misrga keldi,
Ha, Yoqub nasli Xom yurtida* musofir bo‘ldi.
24 Uning xalqini Egamiz barakali qildi,
Dushmanlariga qaraganda, ko‘paytirdi.
25 Egamiz Misr xalqining yuraklarini o‘zgartirdi,
Ular Egamiz xalqidan nafratlandi,
Egamizning qullariga qarshi ular fitna uyushtirdi.

26 So‘ngra Egamiz quli Musoni yubordi,
Tanlab olgan Horunni birga jo‘natdi.
27 Misrliklar orasida, o‘sha Xom yurtida
Ikkalasi Egamizning mo‘jizalarini, ajoyibotlarini
ko‘rsatdi*.
28 Egamiz zulmat yubordi, Misrni zulmatga burkadi,
Axir, Misrliklar Egamizning amrlariga itoatsizlik
qildi*.
29 Misrning suvlarini Egamiz qonga aylantirdi,
Jamiki baliqlarini nobud qilib tashladi.
30 Misr yurti to‘lib ketdi qurbaqalarga,
Yetib bordi hatto hukmdorlarning uyiga.

31 Egamiz amr berganda, so‘nalar galasi keldi,
Misr bo‘ylab burgalar qaynab ketdi.
32 Yomg‘ir o‘rniga ularga Egamiz do‘l yog‘dirdi,
Butun Misr bo‘ylab chaqmoq chaqtirdi.
33 Uzumzoru anjirzorlarini quritdi,
Misrdagi daraxtlarni qo‘porib tashladi.
34 Egamiz amr berganda, chigirtkalar* keldi,
Son–sanoqsiz mayda chigirtkalar chiqib keldi.
35 Ular Misrdagi butun o‘t–o‘lanni yeb yubordi,
Misr o‘lkasidagi hosilni yeb bitirdi.
36 Misrdagi jamiki to‘ng‘ich o‘g‘illarni Egamiz nobud
qildi,
Ha, ularning faxri, qut–baraka timsolini yo‘q qildi.

37 So‘ng Egamiz O‘z xalqini
Oltinu kumushga boyitib* olib chiqdi.
Isroil qabilalarining orasida qoqilib qolgani bo‘lmadi.
38 Misrliklar Isroildan qo‘rqib, vahimaga tushgandi,
Ular ketgach, Misr xalqi sevindi.
39 Xalqi ustida yopinchiq bo‘lsin deb,
Egamiz bulutni yoydi,
Kechasi yorug‘lik bo‘lsin deb, alanga berdi*.
40 Isroil go‘sht so‘raganda Egamiz bedanalar berdi,
Osmondan non yog‘dirib, ularni to‘yg‘azdi*.
41 Egamiz qoyani ochdi, suv otilib chiqdi*,
Sahro bo‘ylab daryoday suv oqdi.
42 Egamiz O‘zining muqaddas va’dasini,
O‘z quli Ibrohimga bergan va’dasini yodda tutdi.
43 Shu bois xalqini olib chiqdi sevinch ila,
O‘z tanlaganlarini shodlik hayqiriqlari ila.
44 Begona xalqlarning yurtlarini ularga berdi,
O‘sha xalqlarning boyligini Isroil mulk qilib oldi.
45 “Isroil xalqi Mening farmonimga rioya qilsin,
Mening qonunlarimga itoat etsin”, deya
Egamiz mana shularning hammasini qildi.

Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin!

105–SANO

1 Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin!

Egamizga shukrona ayting, U yaxshidir!
Uning sodiq sevgisi abadiydir.
2 Egamizning qudratli ishlarini kim batafsil ayta
oladi?!

Kim Unga mukammal hamdu sano ayta oladi?!
3 Baxtlidir adolat ila ish tutganlar,
Har doim to‘g‘ri ish qilganlar.

4 Ey Egam, xalqingga muruvvat ko‘rsatganingda meni
eslagin,
Ularga najot berganingda, menga ham yordam
bergin,
5 Toki tanlagan xalqingning iqbolini ko‘rayin,
Xalqingning shodligini ko‘rib, men ham quvonayin,
Ular bilan birga faxrlanib yurayin.

6 Ey Isroil xalqi, ota–bobolarimiz kabi, biz gunoh
qildik,
Egri yo‘ldan yurdik, yomonlik qildik.
7 Ota–bobolarimiz Misrda bo‘lganlarida,
Egamizning ajoyib ishlariga e’tibor qilmadilar,
Uning mo‘l sodiq sevgisini eslamadilar,
Qizil dengizda* isyon qildilar.
8 Qudratli kuchini bildirish uchun,
O‘z nomi haqi,
Egamiz ularni qutqardi.
9 U Qizil dengizga do‘q urdi, dengiz quridi.
Qup–quruq yerdan yetaklaganday,
Isroil xalqini dengiz tubidan o‘tkazdi*.
10 Egamiz ularni yov qo‘lidan qutqardi,
G‘anim qo‘lidan ularni ozod qildi.
11 Suvlar qaytib, g‘animlarni bosib qoldi,
Dushmanlarning birontasi qutula olmadi.
12 Shunda Isroil xalqi Egamizning so‘ziga ishondi,
Unga hamdu sanolar kuyladi.

13 Ular tez orada Egamizning ishlarini unutdi,
Egamizdan bemaslahat ish qildilar.
14 Sahroda ular nafsi buzuqlik qildi,
Dashtu biyobonda ular Xudoni sinadi*.
15 Egamiz ularga so‘raganini berdi–yu,
Ularga halokatli xastalikni ham yubordi.

16 Qarorgohdagi xalq Musoga,
Egamizga bag‘ishlangan Horunga hasad qildi*.
17 Yer yorilib, Datanni yutib yubordi,
Aburam bilan sheriklarini yamlab yubordi.
18 Sheriklari ustiga olov tushdi,
O‘sha fosiqlarni alanga yondirdi.

19 Sinay tog‘ida* ular buzoq yasadilar,
O‘sha oltin butga sajda qildilar*.
20 Ular Xudoning ulug‘vorligini
O‘t yeydigan buqa tasviriga alishdilar.
21 Misrda buyuk ishlar qilgan
Najotkori Xudoni unutdilar.
22 Xom yurtida* Egamiz ajoyibotlar ko‘rsatgandi,
Qizil dengizda qo‘rqinchli ishlar qilgandi.
Ana shularni Isroil xalqi unutdi.
23 Shu bois Egamiz, ularni qiraman, dedi.
Ammo Muso, Egamizning tanlagani o‘rtaga tushib,
Egamizdan iltijo qilib,
Uni qahru g‘azabidan qaytardi.

24 So‘ngra ular maftunkor yurtni xor qildilar,
Egamizning va’dasiga ishonmadilar*.
25 O‘z chodirlarida ming‘irlab nolidilar,
Egamizga itoat etmadilar.
26 Egamiz qo‘lini ko‘tarib, ont ichdi:
“Sizlarni sahroda yakson qilaman.
27 Naslingizni xalqlar orasiga tarqataman,
Boshqa yurtlarga ularni sochib yuboraman.”

28 So‘ngra bizning ota–bobolarimiz
Piyor tog‘idagi Baalga sajda qilishga qo‘shildilar*,
O‘liklarga* keltirilgan qurbonlikdan yedilar.
29 Ular qilmishlari bilan
Egamizni g‘azablantirdilar,
Ular o‘latga giriftor bo‘ldilar.
30 Finxaz qo‘zg‘alib, aralashdi,
Shunda o‘lat ham to‘xtadi.
31 Shu bois Finxaz solihlik timsoli bo‘ldi,
Bu nasllardan nasllarga to abad davom etadi.

32 Mariva suvlari bo‘yida* ular Egamizning qahrini
keltirdilar,
Ularning dastidan Musoning boshiga qayg‘ular keldi.
33 Ular Musoning g‘azabini qo‘zg‘atdi,
Muso ham o‘ylamay gapirdi.

34 Egamiz, xalqlarni qiringlar, deb amr bergandi,
Ular Egamizning amrini bajarmadi.
35 Begona xalqlar bilan ular aralashib,
Ularning odatlarini o‘rgandilar.
36 Ular begona xalqlarning butlariga sajda qildilar,
O‘sha butlar Egamizning xalqiga tuzoq bo‘ldi.

37 Ular o‘zlarining o‘g‘il–qizlarini
Jinlarga qurbon qildilar.
38 Ha, o‘zlarining o‘g‘il–qizlarini
Kan’on butlariga qurbon qilib,
Begunoh qon to‘kdilar.
Ularning qoni yurtni harom qildi.
39 Ishlari bilan o‘zlarini bulg‘adilar,
Qilmishlari bilan Egamizga bevafolik qildilar.

40 Shunda Egamiz O‘z xalqidan g‘azablandi,
Ulardan jirkandi.
41 Ularni yot xalqlarning qo‘liga berdi,
G‘animlari ular ustidan hukmron bo‘ldi.
42 Dushmanlari ularni siquvga oldi,
Kuch bilan ularni bo‘yin egdirdi.
43 Ko‘p marta Egamiz ularni qutqardi,
Ular esa ataylab isyon qilgan edi,
Gunohlari tufayli past ketdilar.
44 Shunda ham Egamiz O‘z xalqining nolalarini
eshitib,
Ularning kulfatlariga e’tibor berdi.
45 Ular haqi O‘z ahdini yodida tutdi,
Mo‘l sodiq sevgisi bilan ularga shafqat ko‘rsatdi.
46 Ularni asir olganlarni
Shafqatli bo‘lishga undadi.

47 Ey Egamiz Xudo, bizlarni qutqar,
Xalqlar orasidan bizni to‘plab ol,
O‘zing muqaddassan, Senga shukur aytaylik,
Madhga loyiq ishlaring bilan faxrlanaylik.

48 Isroil xalqining Xudosi — Egamizga
To abad olqishlar bo‘lsin,
Jamiki xalqlar: “Omin”, deb aytsin.

Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin!

106–SANO

1 Egamizga shukrona ayting, U yaxshidir,
Uning sodiq sevgisi abadiydir.
2 Shunday desin Egamizdan najot topganlar,
U kulfatdan qutqargan odamlar.
3 Axir, Egamiz ularni sharqu g‘arbdan,
Shimolu janubdan* to‘plagan,
Ko‘p yurtlardan ularni yig‘ib kelgan.

4 Ba’zilari cho‘lu biyobonda tentirab yurdilar,
Yashash uchun biron shaharga yo‘l topmadilar.
5 Och, tashna holda qoldilar,
Sal bo‘lmasa o‘layozdilar.
6 Kulfatda qolganlarida Egamizga nola qildilar,
Egamiz ularni azob–uqubatlardan qutqardi.
7 Ular yashaydigan shaharga borgunga qadar,
Egamiz ularni to‘g‘ri yo‘ldan yetakladi.
8 Sodiq sevgisi uchun ular Egamizga shukrona aytsin!
Egamizning insoniyatga ko‘rsatgan ajoyib ishlari
uchun shukur qilsin!
9 Zotan, U qondirar tashna bo‘lganlarni,
To‘ydirar ne’matlar bilan ochlarni.

10 Ba’zilari zimziyo zulmatda o‘tirardilar,
Asir bo‘lib, kishanda azob chekardilar.
11 Ular Xudoning so‘zlariga qarshi isyon qilgandilar,
Xudoyi Taoloning yo‘l–yo‘riqlarini mensimadilar.
12 Shu bois Xudo ularni og‘ir ishlarga majbur etdi,
Ular yiqilganda, yordam berishga biron kimsa
bo‘lmadi.
13 Kulfatda qolganlarida Egamizga nola qildilar,
Egamiz ularni azob–uqubatlardan qutqardi.
14 Ularni zimziyo zulmatdan olib chiqdi,
Ularning kishanlarini parcha–parcha qildi.
15 Sodiq sevgisi uchun ular Egamizga shukrona
aytsin!
Egamizning insoniyatga ko‘rsatgan ajoyib ishlari
uchun shukur qilsin!
16 Zotan, U bronza darvozalarni sindirar,
Temir tambalarni ikkiga bo‘lib tashlar.

17 Ba’zilari ahmoq bo‘lib, itoatsizlik qildilar,
Gunohlari tufayli azobga duchor bo‘ldilar.
18 Har qanday ovqatdan jirkanar edilar,
O‘lim og‘ziga yaqinlashib qolgan edilar.
19 Kulfatda qolganlarida Egamizga nola qildilar,
Egamiz ularni azob–uqubatlardan qutqardi.
20 Egamiz gapirib, ularga shifo berdi,
Qabrdan ularni saqlab qoldi.
21 Sodiq sevgisi uchun ular Egamizga shukrona
aytsinlar!
Egamizning insoniyatga ko‘rsatgan ajoyib ishlari
uchun shukur qilsinlar!
22 Ular shukrona qurbonligini keltirsinlar,

Uning ishlarini shodon qo‘shiqlarda kuylasinlar.

23 Ba’zilari kemalarda dengizga chiqdilar,
Vahimali suvlar uzra savdo qildilar.
24 Ular Egamizning ishlarini,
Chuqur suvda Uning mo‘jizalarini ko‘rdilar.
25 U amr berganda, bo‘ron qo‘zg‘aldi,
Dengiz to‘lqinlari baland ko‘tarildi.
26 Kema osmonga ko‘tarilib, yana chuqur suvga
tushdi,
Falokatdan kemadagilar bemajol bo‘lib qoldi.
27 Ular mast kabi dovdirab aylandi,
Mahoratlari foyda bermadi.
28 Kulfatda qolganlarida Egamizga nola qildilar,
Egamiz ularni azob–uqubatlardan qutqardi.
29 U bo‘ronni shabadaga aylantirdi,
Dengiz to‘lqinlari sukutga cho‘mdi.
30 To‘lqinlar jim bo‘lganidan ular sevindi,
Istagan bandargohga* ularni keltirib qo‘ydi.
31 Sodiq sevgisi uchun ular Egamizga shukrona
aytsin!
Egamizning insoniyatga ko‘rsatgan ajoyib ishlari
uchun shukur qilsin!
32 Ular jamoa oldida Egamizni ulug‘lasin,
Oqsoqollar yig‘inida Unga hamdu sanolar aytsin.

33 Egamiz daryolarni sahroga aylantirar,
Buloqlarni qaqragan yerga aylantirar.
34 Aholisining fosiqligi sababli
Hosildor yerlarni sho‘r yerga aylantirar.
35 Sahroni esa Egamiz ko‘l qilar,
Qaqragan yerdan buloqlar chiqarar.
36 Och–yupunlarni u yerga olib kelib o‘rnashtirar.
Ular esa yashash uchun shaharlar qurar.
37 Dalalarga urug‘ ekib, uzumzorlar yaratar,
Dalalardan mo‘l–ko‘l hosil olar.
38 Egamizning barakasi ila ular juda ko‘payar,
Ularning chorvasi kamayishiga Egamiz yo‘l qo‘ymas.

39-40 Egamiz aslzodalarni xor qildi,
Yo‘lsiz sahroda ularni sargardon qildi.
Zulm, kulfat, g‘amdan
Ularning soni kamaydi,
Ular qashshoqlashdi.
41 Yo‘qsillarni esa Egamiz kulfatdan qutqarar,

Ularning oilasini qo‘y suruviday ko‘paytirar.
42 Solihlar buni ko‘rib, sevinar,
Fosiqlar esa og‘zini yopib, jim bo‘lar.

43 Donolar bularga e’tibor bersin,
Egamizning sodiq sevgisini anglasin.

107–SANO

1 *Dovud sanosi. Qo‘shiq.*

2 Ey Xudo, yuragim Senga sodiq,
Jonim boricha Seni kuylab, qo‘shiq aytaman.

3 Uyg‘on, ey arfa, lira!
Tongni ham men uyg‘otaman!

4 Ey Egam, xalqlar orasida Senga shukrona aytaman,
Ellar orasida Senga hamdu sano kuylayman.
5 Sodiq sevging samolardan ham yuksakdir,
Sadoqating bulutlardan ham balanddir.
6 Ey Xudo, falakdan ham yuqorida yuksalaver!
Shuhrating butun zamin uzra yoyilsin.
7 O‘ng qo‘ling ila g‘alaba ato qilgin,
Iltijoimga javob bergin,
Suyukli bandalaring najot topsin.

8 Ey Xudo, O‘z muqaddas makoningdan va’da
bergansan*:
“Shodlanib Shakamni* bo‘lib tashlayman,
Suxot vodiysini* taqsimlab beraman.
9 Gilad Menikidir, Manashe* Menikidir,
Efrayim dubulg‘amdir, Yahudo* saltanat hassamdir.
10 Mo‘ab Mening qo‘lyuvgichimdir,
Edom uzra chorig‘imni otaman*,
Filistlar* uzra zafar ila hayqiraman.”

11 Ey Xudo, qaniydi mustahkam shaharga* meni olib
borsalar,
Edomga meni boshlab borsalar.
12 Axir, bizni O‘zing rad etding–ku!
Endi lashkarimizga yo‘lboshchilik qilmayapsan–ku!
13 Dushmandan qutqarib, bizga yordam ber,
Insonning yordami butunlay behuda.
14 Ey Xudo, Sen bilan biz g‘olib bo‘lamiz,
Dushmanlarimizni Sen yanchib tashlaysan.

108–SANO

Ijrochilar rahbariga. Dovud sanosi.

1 Seni olqishlayman, ey Xudo,
Sukut saqlamagin.
2 Fosiq, yolg‘onchilar menga qarshi og‘iz ochgan,
Yolg‘onchi tillar bilan menga qarshi gapirar.
3 Nafratga to‘la so‘zlarni ustimga yog‘dirarlar,
Sababsiz menga hujum qilarlar.
4 Menga ayb qo‘yarlar do‘stligimga javoban,
Ibodat qilaman hamon.
5 Yaxshilik evaziga menga yomonlik qaytararlar,
Do‘stligim evaziga menga adovat qilarlar.

6 Fosiqni ularga qarshi qo‘y,
Ularning o‘ng tomonida ayblovchi tursin.
7 Sinalganda, ular aybdor bo‘lsin,
Ularning ibodati gunoh deb hisoblansin.
8 Ularning umri qisqa bo‘lsin,
O‘rnini boshqasi olsin.
9 Yetim bo‘lib qolsin bolalari,
Beva bo‘lib qolsin xotinlari.
10 Bolalari kulbasidan ayrilib, darbadar bo‘lsin,
Non izlab tilanchi bo‘lsin.
11 Mol–holini sudxo‘rlar egallasin,
Mehnati samarasini begonalar tortib olsin.
12 Biron kimsa ularga shafqat qilmasin,
Ularning yetim bolalariga hech kim achinmasin.
13 Ularning nasl–nasabi qirilib ketsin,
Bir nasldan so‘ng nomlari yo‘q bo‘lsin.
14 Ey Egamiz! Otalari aybini esga olgin,
Onalarining gunohini hech qachon unutmagin.
15 Ey Egamiz, ularning gunohidan doim xabardor
bo‘lgin,
O‘sha insonlarning xotirasini yer yuzidan o‘chirgin.
16 Axir, ular hech qachon shafqat qilishni o‘ylamadi.
Muhtojlarni, umidsizlikka tushganlarni,
Kambag‘allarni ta’qib qildi, o‘ldirdi.
17 Ular la’natlashni yaxshi ko‘rardi,
Endi la’natlari o‘zlarining boshiga kelsin.
Duo qilishni yoqtirmasdi,
Endi duo ulardan uzoq bo‘lsin*.
18 La’natni ular kiyimday kiyardi,
Ularning tanasiga la’nat suv kabi kirardi,
Suyaklariga moy kabi singardi.

19 Ha, kiyim kiyganday, ular la’natga o‘ranib olsin,
La’natni har kuni belga taqadigan kamarday qilib
olsin.

20 Ey Egam! Menga qarshi yomon gapiruvchilarga,
Meni ayblovchilarga Sendan ana shular mukofot
bo‘lsin.
21 Sen, ey Egam Rabbiy,
O‘z noming haqi menga madad ber,
Ezgudir sodiq sevging, meni qutqar.
22 Men bir bechora, yo‘qsilman,
Ichimda yuragim yaralangandir.
23 Oqshomgi soyaday yo‘q bo‘lib boryapman,
Chigirtkaday men uloqtirilganman.
24 Ro‘za tutganimdan tizzalarimda darmon yo‘q,
Etim suyagimga yopishib qolgan.
25 Dushmanlarim haqoratining nishoniman,
Meni ko‘rganlarida masxaralab, boshlarini
chayqashar.

26 Ey Egam Xudo, menga madad bergin,
Sodiq sevging haqi meni xalos qilgin.
27 Buni Sening qo‘ling qilganini dushmanlarim bilsin,
Ey Egam, menga najot bergan Sen ekaningni ular
bilsin.
28 Mayli, ular meni la’natlasin,
Sen esa menga baraka berasan.
Ular hujum qilganda, sharmanda bo‘lishsin,
Men — quling esa shod–xurram bo‘lay.
29 Meni ayblovchilar badnomlikka burkansin,
Chopon kiyganday, sharmandalikka o‘ransin.

30 Egamga cheksiz shukronalar aytaman,
Xaloyiq orasida Unga hamdu sano o‘qiyman.
31 Egamiz turar yo‘qsillarning o‘ng tomonida,
Ularni o‘limga mahkum etganlardan qutqarmoq
uchun.

109–SANO

Dovud sanosi.

1 Egamiz aytmoqda Rabbimga*:
“Dushmanlaringni oyoqlaring ostiga poyandoz
qilmagunimcha,
Sen Mening o‘ng tomonimda* o‘tirgin.”

2 Ey Rabbim! Egamiz Sening hukmronligingni
Quddusdan* boshlab kengaytirar!
Dushmanlaring oʻrtasida Sen hukmronlik qil!
3 Sen jang qiladigan kunda
Jangchilaring oʻz xohishi bilan maydonga chiqadi.
Erta tong yosh yigitlaring
Shabnam kabi atrofingda toʻplanadi,
Ular muqaddas ulugʻvorlikka burkangan*.
4 Egamiz ont ichgan, qarorini oʻzgartirmas:
“Sen Maliksidiq singari,
To abad ruhoniysan.”*

5 Ey Xudo, Rabbim oʻng tomoningda oʻtirar,
Gʻazablangan kunda shohlarni ezib tashlar.
6 U xalqlarni hukm etib, jasadlarini uyum qilar,
Butun yer yuzidagi hukmdorlarni ezib tashlar.
7 Yoʻl boʻyidagi irmoqdan suv ichar,
Kuchga toʻlib, gʻolib boʻlib turar.

110–SANO

1 Egamizga hamdu sanolar boʻlsin!

Solihlar jamoasida boʻlganimda,
Butun qalbimdan Egamga shukur aytaman.
2 Egamizning ishlari buyukdir,
Ulardan lazzat oluvchilar ular haqda fikr yuritadilar.
3 Egamizning ishlari ulugʻvor, haybatlidir,
Uning adolati to abad davom etadi.
4 Egamiz unutilmas ajoyibotlarni yaratdi,
U rahmdil va shafqatlidir.
5 Oʻzidan qoʻrqqanlarga rizq–roʻzini beradi,
Oʻz ahdini doimo yodida tutadi.
6 Xalqiga qudratli ishlarini koʻrsatdi,
Boshqa xalqlar yerini ularga berdi.
7 Hamma ishlarida sodiq, adolatlidir,
Uning hamma amrlari ishonchlidir.
8 Ularning hammasi to abad mustahkam turadi,
Egamiz ularni sadoqat, toʻgʻrilik ila ijro qildi*.
9 U xalqini qutqardi,
To abad ahdi bilan ularni Oʻziga bogʻladi.
Uning nomi muqaddas, qoʻrqinchlidir.
10 Egamizdan qoʻrqish donolikning boshidir,
Bunday yoʻl tutganlarning aqli rasodir,
Uning hamdu sanolari to abad davom etadi.

111–SANO

1 Egamizga hamdu sanolar boʻlsin!

Baxtlidir Egamizdan qoʻrqadigan odam,
Uning amrlarini bajarib zavq oladigan odam!
2 Bunday odamning avlodi yurtda qudratli boʻladi,
Toʻgʻri odamning nasli baraka topadi.
3 Uning uyida moʻlchilik, boylik boʻladi,
Uning solihligi to abad davom etadi.
4 Hatto zulmatda ham toʻgʻri insonga nur yogʻiladi,
Rahmdil, mehribon, solih odamga yogʻdu sochiladi.
5 Yaxshi odam saxiy, qarz beradi,
Adolat bilan ish yuritadi.
6 Solih hech qachon tebranmaydi,
U to abad unutilmaydi.
7 U yomon xabardan qoʻrqmaydi,
Butun yurakdan Egamizga umid bogʻlaydi.
8 Yuragi barqarordir, qoʻrquv nimaligini bilmaydi,
Oxiri dushmanlarining magʻlubiyatini oʻz koʻzi bilan
koʻradi.
9 Boyligini muhtojlarga saxiylik ila taqsimlaydi,
Uning solihligi to abad davom etadi.
U qudratli, hurmatli boʻladi.
10 Fosiqlar buni koʻrib, gʻazabga minadi,
Alam qilganidan tishlarini gʻichirlatadi–yu,
Ammo kuchdan qoladi.
Ha, fosiqlarning istagi puchga chiqadi.

112–SANO

1 Egamizga hamdu sanolar boʻlsin!

Hamdu sano ayting, ey Egamizning qullari,
Hamdu sanolar boʻlsin Egamizning nomiga!
2 Egamiz nomiga hozir ham,
Abadulabad olqishlar boʻlsin.
3 Sharqdan to gʻarbga qadar
Egamizning nomiga olqishlar boʻlsin!
4 Egamiz barcha xalqlar ustidan yuksalgan,
Uning shuhrati samolardan ham buyukdir.

5 Egamiz Xudoga kim oʻxshaydi?!
U yuksakda taxt qurgan.
6 U samoga, yer yuziga egilib qaraydi.
7 Tuproqqa qorilgan bechorahollarni U koʻtaradi,

Faqirlarni axlat uyumidan olib, yuksaltiradi.
8 Ularga shahzodalar yonidan joy beradi,
O‘z xalqining shahzodalari bilan birga o‘tqazadi.
9 Befarzand ayolni o‘z uyida U sharaflaydi,
Unga farzand ato etib, baxtiyor qiladi.

Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin!

113–SANO

1-2 Isroil xalqi Misrdan chiqib ketganda,
Yahudo yurti Xudoning muqaddas maskani bo‘ldi.
Ha, Yoqub nasli begona yurtdan ketganda,
Isroil yurti Xudoning shohligi bo‘ldi.

3 Dengiz Xudoni ko‘rdi–yu, qochdi*,
Iordan daryosi orqaga qaytdi*.
4 Tog‘lar qo‘chqorlar kabi sakradi*,
Tepaliklar qo‘zilar kabi irg‘idi.

5 Ne bo‘ldi, ey dengiz, qochib ketding?
Ne bo‘ldi, ey Iordan, orqaga qaytding?
6 Ey tog‘lar, nechun sakradingiz takalar kabi?
Ey tepaliklar, nechun irg‘idingiz qo‘zilar kabi?

7 Titragin, ey zamin, Rabbiy oldida,
Yoqubning Xudosi huzurida.
8 U qoyani suv hovuziga aylantirgan,
Qattiq qoyadan buloq chiqargan*.

9 Ey Egam! Sodiq sevging, sadoqating haqi
Senga sharaflar bo‘lsin!
Bizga emas, Senga sharaflar bo‘lsin!

10 Nima uchun begona xalqlar:
“Qani ularning Xudosi”, deya aytarlar?
11 Bizning Xudoyimiz samolardadir,
U istaganini qilaveradi.
12 Xalqlarning xudolari esa kumush, oltindan,
Inson qo‘llarining mahsulidir.
13 Butlarning og‘izlari bor, so‘zlay olmaslar,
Ko‘zlari bor, ko‘ra olmaslar.
14 Ularning quloqlari bor, eshita olmaslar,
Burunlari bor, hidlay olmaslar.
15 Ularning qo‘llari bor, seza olmaslar,
Oyoqlari bor, yura olmaslar,
Bo‘g‘izlaridan ovoz chiqara olmaslar.

16 Butlarni barpo qilganlar, butlarga ishonganlar
Xuddi ularga o‘xshagan bo‘lib qolar.

17 Ey Isroil xalqi! Ishoning Egamizga,
U madad berar, qalqon bo‘lar sizga!
18 Ey Horun xonadoni!* Ishoning Egamizga,
U madad berar, qalqon bo‘lar sizga!
19 Ey Egamizdan qo‘rqqanlar! Ishoning Egamizga,
U madad berar, qalqon bo‘lar sizga!

20 Egamiz bizni yodda tutib, baraka beradi,
Isroil xalqiga U baraka beradi,
Horun xonadoniga U baraka beradi.
21 Egamiz O‘zidan qo‘rqqanlarga baraka beradi,
Kattayu kichikka bir xilda baraka beradi.

22 Egamiz sizlarni,
Bolalaringizni ko‘paytirsin.
23 Yeru osmonni yaratgan Egamiz
Sizlarga baraka bersin.
24 Samolar Egamizning samolaridir,
Yerni esa U insonlarga bergandir.
25 O‘lim sukunatiga botgan marhumlar
Egamizga hamdu sano aytmaslar.
26 Biz esa Egamizga hozir ham, abadulabad
Olqishlar aytamiz.

Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin!

114–SANO

1 Egamni sevaman, U meni eshitadi,
Mening iltijolarimni U tinglaydi.
2 Quloq berib meni tinglagani uchun
Umrim bo‘yi Egamga iltijo qilaman.
3 Meni o‘lim to‘rlari o‘rab oldi,
O‘liklar diyorining* azoblari boshimga tushdi,
Meni bosdi dardu g‘am, alamlar.
4 Shunda Egamga iltijo qildim:
“Ey Egam, yolvoraman, meni qutqargin!”

5 Egamiz mehribon, odildir,
Xudoyimiz rahmdildir.
6 Egamiz sodda insonlarni himoya qiladi,
Xavf–xatarda qolganimda, U meni qutqaradi.

7 Ey jonim, yana xotirjam bo‘lgin,

Egam menga ezgulik qilgan.

8 Egam jonimni o‘limdan qutqarib qoldi,
Ko‘zlarimni yosh to‘kishdan,
Oyog‘imni qoqilishdan qutqardi.
9 Tiriklar diyorida ekanman
Egamning yo‘lidan yuraveraman.

115–SANO

1 Juda ko‘p azob cheksam ham,
Xudoga bo‘lgan ishonchim yo‘qolmadi.
2 O‘ylamasdan*: “Hamma odamlar yolg‘onchidir”,
dedim.

3 Egam menga qilgan yaxshiliklarini
Unga qanday qilib qaytaray?
4 Najot topganimni nishonlayman,
Egamga sajda qilaman.
5 Egamiz xalqining ko‘zi oldida
Unga bergan ontimni ado etaman.

6 Taqvodorlarning o‘limi
Egamizning nazarida juda achchiqdir.

7 Ey Egam, men Sening qulingman,
Cho‘ringning o‘g‘liman,
O‘zing kishanlardan meni ozod qilgansan.
8 Shukrona qurbonligini Senga nazr qilaman,
Senga sajda qilaman.
9-10 Quddusda, Sening uying hovlilarida,
Jamiki xalqingning ko‘zi oldida
Ey Egam, Senga bergan ontimni ado etaman.

Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin!

116–SANO

1 Ey barcha xalqlar, Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin!
Ey jamiki elatlar, Uni olqishlanglar!
2 Zero, Uning bizga bo‘lgan sevgisi ulug‘dir,
Egamizning sadoqati to abad davom etar.

Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin!

117–SANO

1 Egamizga shukrona ayting, U yaxshidir,

Uning sodiq sevgisi abadiydir.

2 Isroil xalqi shunday desin:
“Uning sodiq sevgisi abadiydir.”
3 Horun avlodi shunday aytsin:
“Uning sodiq sevgisi abadiydir.”
4 Egamizdan qo‘rqqanlar shunday aytsin:
“Uning sodiq sevgisi abadiydir.”

5 Kulfatda qolganimda Egamga iltijo qildim,
Javob berib, U meni ozod qildi.
6 Egam men bilan birga, shu bois qo‘rqmayman.
Insonlar menga nima qila oladi?!
7 Egam men bilan birga, U menga madad beradi,
Ko‘zlarim dushmanlarim mag‘lubiyatini ko‘radi.
8 Insondan umid qilgandan ko‘ra,
Egamizdan panoh izlash yaxshidir.
9 Shahzodalardan umid qilgandan ko‘ra,
Egamizdan panoh izlash yaxshidir.

10 Dushman xalqlar o‘rab olgan atrofimni,
Egamning qudrati bilan ularni uloqtirdim.
11 Har tarafdan o‘rab, menga hujum qilgandi,
Egamning qudrati bilan ularni uloqtirdim.
12 Atrofimni arilarday o‘rab oldilar,
Tikan alangasiday lov etdilar–da, o‘chdilar,
Egamning qudrati bilan ularni uloqtirdim.
13 Meni qattiq turtganlarida, yiqilayozdim,
Egam menga madad berdi.
14 Egam mening kuch–qudratimdir*,
U mening qutqaruvchimdir.

15 Solihlarning chodirlarida
Shodlik, zafar qo‘shiqlari jaranglaydi:
“Egamizning o‘ng qo‘li mag‘lub qiladi.
16 Egamizning o‘ng qo‘li baland ko‘tariladi,
Ha, Egamizning o‘ng qo‘li mag‘lub qiladi.”

17 Men o‘lmayman. Ha, men yashayman,
Egamning ishlarini naql qilaman.
18 Egam meni qattiq jazoladi,
Lekin o‘lishimga yo‘l qo‘ymadi.

19 Adolat darvozalarini menga ochinglar,
Toki men darvozadan kirib,
Egamga shukronalar aytayin.

20 Bu Egamizning darvozasidir,
Solihlar shu darvozadan kirsin.

21 Ey Egam, ibodatimga javob berganing uchun,
Mening najotkorim bo‘lganing uchun
Senga shukrona aytaman.

22 Binokorlar rad etgan tosh
Binoning tamal toshi* bo‘ldi.
23 Bu Egamizning qilgan ishidir,
Ko‘z oldimizdagi ajoyibotdir.
24 Egamiz yaratgan kundir bu,
Bu kunda shod bo‘lib, sevinaylik.

25 Najot ber bizga, yolvoramiz, ey Egam!
Muvaffaqiyat ber, o‘tinamiz, ey Egam!

26 Egamiz nomidan keladigan zot baraka topsin,
Egamiz uyidan turib, seni duo qilamiz.
27 Egamiz Xudodir, U bizga nur bergan.
Bayram nishonlashni boshlang!
Palma shoxlarini olib, qurbongoh oldiga boring*.

28 Sen Xudoyimsan, Senga shukur aytaman,
Sen Xudoyimsan, Seni ulug‘layman.

29 Egamizga shukrona ayting, U yaxshidir,
Uning sodiq sevgisi abadiydir.

118–SANO

1 Baxtlidir yo‘llari pok bo‘lganlar,
Ey Egam, Sening qonuning bo‘yicha yuradiganlar.
2 Baxtlidir Sening shartlaringga rioya qiladiganlar,
Butun qalbi bilan Senga intiladiganlar.
3 Ular aslo nohaq ish qilmaydilar,
Sening yo‘llaringdan yuradilar.
4 O‘zing bizga amr berib,
Buyruqlarimga diqqat ila itoat eting, degansan.
5 Qaniydi farmonlaringni ado etishda barqaror
bo‘lsam!
6 Men sharmanda bo‘lib qolmay, deya
Hamma amrlaringga diqqat qilaman.
7 Sening odil qoidalaringni o‘rganganimda,
Toza qalb ila hamdu sano aytaman Senga.
8 Sening qonunlaringni bajaraman,
Meni hech qachon tark etmagin.

9 Yigit qanday qilib yoʻllarini pok saqlaydi?
Kaloming boʻyicha yashab, shunga erishadi.
10 Butun qalbim bilan Senga intilaman,
Amrlaringdan ogʻishimga yoʻl qoʻymagin.
11 Soʻzlaringni yuragimda asrayman,
Toki Senga qarshi gunoh qilmayin.
12 Ey Egam, Senga olqishlar boʻlsin,
Farmonlaringni oʻrgatgin menga.
13 Ogʻzingdan chiqqan barcha qoidalarni
Oʻz ogʻzim bilan eʼlon qilaman.
14 Shartlaringga ergashib, lazzat topaman,
Goʻyo katta boylik topib xursand boʻlaman.
15 Buyruqlaring haqida chuqur fikr yuritaman,
Sening yoʻllaringga diqqat qilaman.
16 Farmonlaringdan lazzat olaman,
Kalomingni men unutmasman.

17 Men, Oʻz qulingga yaxshilik qilgin,
Toki yashab, kalomingga itoat etayin.
18 Koʻzlarimni och, toki koʻrayin
Qonuningdagi ajoyibotlarni.
19 Yer yuzida musofirday yashayman,
Amrlaringni mendan yashirma.
20 Jonim kuymoqda hasrat bilan,
Qoidalaringni oʻrganishni doim istayman.
21 Laʼnatlangan takabburlarga,
Amrlaringdan ogʻib ketganlarga Sen tanbeh berasan.
22 Haqorat, xoʻrlikni mendan uzoqlashtir,
Axir, shartlaringni doim bajarganman.
23 Hatto shahzodalar toʻplanib, menga boʻhton
qilsalar ham
Men farmonlaring haqida chuqur fikr yuritaman.
24 Sening shartlaring menga lazzat bagʻishlaydi,
Shartlaring men uchun maslahatchidirlar.

25 Jonim chiqay deb turibdi,
Vaʼdangga koʻra, hayotimni saqlagin.
26 Hayotim haqida Senga aytib berdim,
Sen javob berding.
Endi farmonlaringni menga oʻrgatgin.
27 Menga buyruqlaringni tushuntir,
Toki moʻjizalaring haqida chuqur fikr yuritay.
28 Jonim ado boʻldi gʻam–gʻussadan,
Quvvat bergin menga vaʼdangga binoan.

29 Soxta yoʻllardan meni saqlagin,
Iltifot ila qonuningni menga oʻrgatgin.
30 Men sadoqat yoʻlini tanlaganman,
Qoidalaringni yuragimga jo qilganman.
31 Ey Egam, shartlaringni mahkam ushlaganman,
Endi sharmanda boʻlishimga yoʻl qoʻymagin.
32 Jonim bilan amrlaringni bajaraman,
Zotan, menga koʻp zakovat ato qilasan.

33 Ey Egam, menga farmonlaringni oʻrgat,
Toki men ularni oxirigacha bajarayin.
34 Zakovat ber menga, toki qonuningga rioya qilay,
Chin qalbimdan qonuningni bajaray.
35 Amrlaring soʻqmogʻidan meni yetaklagin,
Men undan lazzat topaman.
36 Yuragimni nohaq foyda tomon emas,
Oʻz shartlaring tomon burgin.
37 Koʻzlarimni befoyda narsalardan qaytargin,
Va'dangga binoan hayotimni saqlagin*.
38 Men, Oʻz qulingga bergan va'dangda turgin,
Bu va'dang Sendan qoʻrqadiganlar uchundir.
39 Sharmandalikdan qoʻrqaman, mendan uzoq qil,
Zotan, qoidalaring ezgudir.
40 Buyruqlaringga naqadar talpinaman,
Adolating bilan hayotimni saqlagin.

41 Sodiq sevgingni, ey Egam, menga koʻrsat,
Va'dangga koʻra, menga najot ber.
42 Shunda meni haqorat qilganlarga javob beraman,
Sening kalomingga umid qilaman.
43 Ogʻzimdan haqiqat kalomini tamom tortib olma,
Sening qoidalaringga umid bogʻlaganman.
44 Qonuningga doimo rioya qilaman,
Abadulabad uni bajaraman.
45 Men ozod boʻlib yuraveraman,
Buyruqlaringni izlab topganman.
46 Shohlar oldida shartlaringdan soʻylayman,
Sharmanda boʻlmasman.
47 Amrlaringdan lazzat topaman,
Men amrlaringni sevaman.
48 Amrlaringga izzatu sevgi koʻrsataman,
Farmonlaring haqida chuqur fikr yuritaman.

49 Esla men, qulingga bergan va'dangni,
Sen va'da berib, umidvor qilgansan meni.

50 Kulfatda qolganimda shu menga tasalli beradi,
Sening va’dang mening hayotimni saqlaydi.
51 Takabbur meni tamom masxara qiladi,
Shunda ham qonuningdan yuz o‘girmasman.
52 Azaliy qoidalaringni, ey Egam, eslayman,
Bu qoidalaringdan men tasalli topaman.
53 Fosiq qonuningdan yuz o‘girgan,
Shu bois men qattiq g‘azablanaman.
54 Qayerda boshpana qilgan bo‘lmayin,
Farmonlaringni qo‘shiq qilib kuylayman.
55 Ey Egam, tunda ham Seni eslayman,
Sening qonunlaringga rioya etaman.
56 Bu menga odat bo‘lgan edi,
Buyruqlaringga rioya qildim.

57 Ey Egam, Sen mening xavfsizligim manbaisan,
Kalomingga itoat etaman, deb va’da beraman.
58 Jamolingni izladim chin qalbimdan,
Mehribon bo‘l menga va’dangga binoan.
59 Yo‘llarimga diqqat qildim,
Shartlaring bo‘yicha qadam bosaman.
60 Men shoshilaman, kechikmasman
Amrlaringga itoat etmoq uchun.
61 Fosiqlar meni arqonlar bilan bog‘laydi,
Shunda ham Sening qonuningni unutmayman.
62 Yarim tunda uyg‘onib, odil qoidalaring uchun
Senga hamdu sano aytaman.
63 Sendan qo‘rqqanlarga men do‘stman,
Buyruqlaringga rioya qilganlarga sherikman.
64 Ey Egam, sodiq sevgingdan zamin to‘lgandir,
Farmonlaringni menga o‘rgat.

65 Ey Egam, O‘zing bergan va’dangga muvofiq
Men, O‘z qulingga yaxshilik qilding.
66 Menga donolik, zukkolik bergin,
Sening amrlaringga ishondim.
67 Jazo olmasimdan oldin adashar edim,
Endi Sening so‘zingga itoat etaman.
68 Naqadar yaxshisan, ezgulik qilasan,
Farmonlaringni menga o‘rgatgin.
69 Takabbur yolg‘on so‘ylab, meni qoraga chaplar,
Men esa chin qalbdan buyruqlaringga itoat etaman.
70 Ularning qalbini yog‘ bog‘lagan,
Men esa qonuningdan lazzat olaman.
71 Tortgan jazoim menga saboq bo‘ldi,

Shu orqali farmonlaringni oʻrgandim.
72 Minglab oltinu kumushdan koʻra,
Yaxshidir men uchun ogʻzingdan chiqqan qonun.

73 Qoʻllaring meni yaratgan, barpo qilgan,
Amrlaringni oʻrganishga menga idrok bergin.
74 Sendan qoʻrqqanlar meni koʻrib, sevinsinlar,
Zotan, Sening kalomingga umid qilganman.
75 Ey Egam, hukmlaring adolatliligini bilaman,
Menga jazo berganingda, Sen haq eding.
76 Men, Oʻz qulingga bergan vaʼdangga koʻra,
Sodiq sevging menga tasalli boʻlsin.
77 Menga shafqat qilgin, toki yashayin,
Axir, Sening qonuning men uchun lazzat.
78 Yolgʻon gapirib, menga zarar qilgani uchun
Takabburlar sharmanda boʻlsin.
Men esa buyruqlaring haqida fikr yuritaman.
79 Men tomon kelsin Sendan qoʻrqqanlar,
Sening shartlaringni biladiganlar.
80 Farmonlaringni bitta qolmay bajaray,
Toki men sharmanda boʻlib qolmay.

81 Najotingni kutib, jonim ado boʻlmoqda,
Sening kalomingdan umid qilmoqdaman.
82 Vaʼdalaringni kutib, koʻzimning nuri soʻnadi,
“Qachon menga tasalli berasan?” deya soʻrayman.
83 Tutunda qorayib, bujmaygan meshday* boʻlsam
ham,
Sening farmonlaringni men unutmaganman.
84 Qachongacha men, quling, kutishim kerak?
Meni taʼqib qiluvchilarni qachon hukm qilasan?
85 Takabburlar menga chuqur qazirlar,
Sening qonuningga ular qarshi chiqarlar.
86 Hamma amrlaring umidbaxshdir.
Meni sababsiz taʼqib etarlar, yordam ber!
87 Ular meni yer yuzidan yoʻq qilay, dedi,
Ammo buyruqlaringni men tark etmadim.
88 Sodiq sevging haqi saqla hayotimni,
Toki ogʻzingdan chiqqan shartlarga rioya qilay.

89 Kaloming, ey Egam, to abaddir,
U samolarda mustahkam turadi.
90 Sening sadoqating nasllar osha davom etadi,
Yerni barqaror qilgansan, u to abad turaveradi.
91 Qoidalaring tufayli

Yeru osmon bugun ham mustahkamdir,
Butun olam qo‘ling ostidadir.
92 Agar qonuning men uchun lazzat bo‘lmasaydi,
Tortgan g‘amu kulfatlarimdan tamom bo‘lardim.
93 Men buyruqlaringni hech qachon unutmayman,
Bular orqali Sen hayotimni saqlagansan.
94 Men Senikidirman, meni qutqargin,
Zotan, men buyruqlaringni bajarishga intilganman.
95 Fosiqlar meni o‘ldirishga payt poylaydi,
Men esa shartlaring haqida chuqur fikr yuritaman.
96 Jamiki komillikning cheklanganini ko‘rdim,
Sening amrlaring esa chegarasizdir.

97 O, naqadar sevaman qonuningni!
Kun bo‘yi xayolimda tutaman uni.
98 Amrlaring meni g‘animlarimdan ko‘proq dono
qildi,
Amrlaring doimo men bilan birga.
99 Barcha ustozlarimdan ham ziyrakroq bo‘ldim,
Sening shartlaring ustida fikr yuritaman.
100 Yoshi ulug‘lardan ham donoroq bo‘ldim,
Chunki Sening buyruqlaringga itoat etaman.
101 Har qanday yomon yo‘ldan qadamimni tiydim,
Toki Sening kalomingga itoat etay dedim.
102 Qoidalaringdan men qaytmadim,
Menga O‘zing ta’lim bergansan.
103 So‘zlaring men uchun naqadar mazalidir,
Asaldan ham shirin tuyular og‘zimga.
104 Buyruqlaring tufayli men dono bo‘laman,
Har qanday yolg‘on yo‘ldan nafratlanaman.

105 Sening kaloming qadamlarim uchun chiroqdir,
Yo‘limga nur sochadigan yorug‘likdir.
106 Adolatli qoidalaringni bajaraman, deb
Ont ichdim va bu ontimga vafo qilaman.
107 Ey Egam, men ko‘p jafo chekdim,
Va’dangga ko‘ra, hayotimni saqla.
108 Ey Egam, maqtov nazrlarimni qabul etgin,
Menga qoidalaringni o‘rgatgin.
109 Hayotim har on xavfda bo‘lsa ham,
Sening qonuningni men unutmayman.
110 Fosiqlar menga tuzoq qo‘ydilar,
Shunda ham buyruqlaringdan og‘ib ketmadim.
111 Sening shartlaring to abad mening mulkimdir,
Shartlaring qalbimning quvonchidir.

112 Farmonlaringni to abad ijro etmoqqa
Yuragimni moyil qildim.

113 Ikkiyuzlamachilardan men nafratlanaman,
Sening qonuningni sevaman.
114 Sen mening panohimsan, qalqonimsan,
Sening kalomingga umid bog‘layman.
115 “Ey badkirdorlar, yo‘qoling ko‘z oldimdan,
Men Xudoyimning amrlarini bajaray”, deb aytaman.
116 Va’dangga ko‘ra, menga tayanch bo‘l, toki
yashayin,
Umidim puchga chiqmasin, sharmanda bo‘lmayin.
117 Suyanchiq bo‘l menga, toki najot topayin,
Farmonlaringga doim diqqat bilan boqayin.
118 Farmonlaringdan toyganlarni rad etding,
Ularning hiylayu nayranglari behudadir.
119 Yer yuzidagi jamiki fosiqlarni
Axlatday uloqtirib tashlaysan,
Shu bois men shartlaringni sevaman.
120 Sendan qo‘rqqanimdan vujudim titraydi,
Hukmlaringdan meni vahima bosadi.

121 Adolatli, to‘g‘ri ishlar qilganman,
Meni zolimlar qo‘lida qoldirma.
122 Men, qulingning baxtiga kafolat bergin,
Takabburlar meni ezishlariga yo‘l qo‘ymagin.
123 Najotingni kutaverib, ko‘zim to‘rt bo‘ldi,
Va’da qilgan najoting armonida ko‘zim nuri to‘kildi.
124 Men, O‘z qulingga sodiq sevgingni ko‘rsatgin,
Farmonlaringni menga o‘rgatgin.
125 Sening qulingman, menga idrok bergin,
Toki men shartlaringni bilib olayin.
126 Ey Egam, vaqti keldi, O‘z ishingni qil,
Sening qonuning buzildi.
127 Chindan ham Sening amrlaringni
Oltindan, eng sof oltindan ham ko‘proq sevaman.
128 Sening buyruqlaringga ko‘ra, qadam bosaman,
Har qanday yolg‘on yo‘ldan nafratlanaman.

129 Sening shartlaring ajoyibdir,
Shu bois ularga itoat etaman.
130 Kalomingning ta’limoti ziyo sochadi,
Soddalarga aql–idrok beradi.
131 Og‘zim ochilib, og‘ir nafas olaman,
Chunki Sening amrlaringga juda intilaman.

132 Men tomon yuz bur, menga shafqat qilgin,
Axir, Seni sevganlarga doim shafqat koʻrsatasan.
133 Soʻzingga koʻra, qadamimni Oʻzing boshqargin,
Hech qachon ustimdan gunoh hukmron boʻlmasin.
134 Inson zulmidan meni qutqargin,
Toki Sening buyruqlaringga itoat etayin.
135 Jamoling menga nurlarini sochsin,
Farmonlaringni menga oʻrgatgin.
136 Koʻzlarimdan yoshlar daryo boʻlib quyilar,
Axir, odamlar qonuningga rioya qilmayapti.

137 Sen odilsan, ey Egam,
Hukmlaring adolatlidir.
138 Adolat ila shartlaringni buyurgansan,
Tamomila ishonchlidir shartlaring.
139 Gʻazabim meni ado qilmoqda,
Dushmanlarim kalomingni rad etmoqda.
140 Vaʼdalaring naqadar sofdir!
Men vaʼdalaringni naqadar sevaman!
141 Men keraksizman, xoʻrlanganman,
Buyruqlaringni unutmayman.
142 Sening adolating mangudir,
Sening qonuning haqiqatdir.
143 Boshimga kulfatu azob keldi,
Amrlaring menga zavq berar.
144 Shartlaring to abad adolatlidir,
Idrok bergin menga, toki yashayin.

145 Ey Egam, chin koʻngildan yolvoraman, javob ber,
Farmonlaringga rioya qilaman.
146 Senga faryod qilaman, meni qutqargin,
Toki shartlaringga men rioya qilay.
147 Kun chiqmasdan Sendan madad soʻrab faryod
qilaman,
Sening kalomingga men umid bogʻlayman.
148 Sening vaʼdangni chuqur anglay deb,
Koʻzlarimga tun boʻyi uyqu kelmaydi.
149 Sodiq sevgingga koʻra, ovozimni eshitgin,
Ey Egam, adolating bilan hayotimni saqlagin.
150 Qabih reja tuzadiganlar yaqin kelmoqda,
Ular qonuningdan uzoqda yuradi.
151 Sen esa, ey Egam, yonimdasan,
Hamma amrlaring haqiqatdir.
152 Qonuningni Sen mangu barqaror qilgansan,
Yoshligimdan buni men bilaman.

153 Azoblarimga qaragin, meni qutqargin,
Axir, men Sening qonuningni unutmadim.
154 Mening da’voimni isbot qil, meni qutqar,
Va’dangga ko‘ra, hayotimni saqla.
155 Fosiqdan najot uzoqdadir,
Sening farmonlaringni ular izlamaslar.
156 Ey Egam, shafqating buyukdir,
Adolating bilan hayotimni saqla.
157 Meni ta’qib qiluvchi dushmanlarim ko‘p,
Men shartlaringdan yuz o‘girmayman.
158 Makkorlarga nafrat ila qarayman,
Ular Sening amrlaringga rioya qilmaydi.
159 Qaragin, naqadar sevaman buyruqlaringni,
Sodiq sevgingga ko‘ra, saqlagin hayotimni.
160 Kaloming mohiyati haqiqatdir,
Adolatli qoidalaring to abad davom etadi.

161 Hukmdorlar meni sababsiz ta’qib qilar,
Yuragim kalomingdan qo‘rqib titrab turar.
162 Xuddi ulkan xazina topgan odamday,
Sening so‘zingdan shod bo‘laman.
163 Yolg‘ondan nafratlanib, jirkanaman,
Sening qonuningni esa sevaman.
164 Sening adolatli qoidalaring tufayli
Yetti marta kuniga Seni madh qilaman.
165 Qonuningni sevganlar buyuk tinchlikka ega bo‘lar,
Hech narsa ularga to‘siq bo‘la olmaydi.
166 Ey Egam, men najotingga umid qilaman,
Men Sening amrlaringni bajaraman.
167 Shartlaringga itoat etaman,
Men ularni g‘oyatda sevaman.
168 Buyruq, shartlaringga rioya qilaman,
Hamma yo‘llarim Senga ma’lumdir.

169 Ey Egam, ohu nolam yetsin Senga,
Kalomingga ko‘ra, menga idrok bergin.
170 Iltijoim yetib borsin Senga,
Bergan va’dangga ko‘ra, meni qutqargin.
171 Lablarimdan hamdu sano to‘lib–toshsin,
Menga o‘rgatasan farmonlaringni.
172 Tilim kuylaydi Sening va’dangni,
Zotan, adolatlidir barcha amrlaring.
173 Menga yordamga tayyor turgin,
Zotan, tanlaganman men buyruqlaringni.

174 Ey Egam, najotingga talpinaman,
Sening qonuningdan lazzat topaman.
175 Umr ber menga, hamdu sano aytayin Senga,
Qoidalaring yordam bersin menga.
176 Adashgan qo‘yday yo‘ldan ozganman,
Izlab top meni, O‘z qulingni.
Zotan, men amrlaringni unutmaganman.

119–SANO

Ziyorat qo‘shig‘i.*

1-2 Qayg‘u–alamdan Egamga faryod qildim:
“Ey Egam, yolg‘onchi lablardan,
Makkor tildan jonimni asragin!”
U faryodimga javob berdi.

3 Ey makkor til, Egamiz boshingga ne kunni solar
ekan?
Senga qanday jazo berar ekan?
4 U jangchining o‘tkir o‘qlari bilan seni jazolaydi,
Yonayotgan yulg‘un butasining cho‘g‘lari bilan senga
jazo beradi.

5 Holimga voy, Meshexda musofirman,
Kedar* chodirlari orasida yashayman.
6 Tinchlikdan nafrat etuvchi xalq orasida
Yashashdan charchadim.
7 Men tinchlik tarafdoriman,
Ammo gapiray deb, og‘iz ochsam,
Ular urushni istaydilar.

120–SANO

Ziyorat qo‘shig‘i.

1 Tog‘larga tikaman ko‘zlarimni,
Qayerdan kelar menga madad?
2 Yeru osmonni yaratgan
Egamdan kelar menga madad.

3 Qoqilishingga U yo‘l qo‘ymas,
U posboningdir, aslo mudramas.
4 Ha, Isroilning posbonidir U,
Mudramaydi, uxlamaydi U.

5 Egamizdir sening posboning,
Egamizdir yoningdagi soyang sening.

6 Kunduzi oftob seni urmas,
Kechasi oy senga zarar yetkazmas.
7 Egamiz seni har qanday xatardan asraydi,
Joningni Egamiz omon saqlaydi.
8 Hozir va to abad qayerga borsang ham,
Egamiz doim senga posbonlik qiladi.

121–SANO

Dovudning ziyorat qo‘shig‘i.

1 “Egamizning uyiga boraylik”, deb
Menga aytganlarida shod bo‘ldim.
2 Mana turibmiz, ey Quddus,
Darvozalaring ichkarisida.

3 Quddus yaxshi qurilgan shahardir,
Devorlari bir–biriga tutashtirib solingandir.
4 Isroil xalqiga berilgan qonunga ko‘ra,
Qabilalar u yerga chiqib borarlar!
Ha, Egamizning qabilalari
Unga shukur aytmoq uchun chiqib borarlar!
5 U yerda hukm taxtlari o‘rnashgan,
Ha, Dovud xonadonining taxtlari
U yerda joylashgan.

6 Duo qiling Quddusning tinchligi uchun:
“Uni sevganlar huzur–halovat topsin.
7 Devorlari ichida tinchlik bo‘lsin,
Qal’alari bexatar bo‘lsin.”
8 Qarindoshlarim, do‘stlarim haqi–hurmati,
Quddusga tinchlik bo‘lsin, deya aytaman.
9 Egamiz Xudoning uyi haqi–hurmati
Quddusning iqbolini izlayman.

122–SANO

Ziyorat qo‘shig‘i.

1 Ey samolarda taxt qurgan Xudo!
Ko‘zlarimni Senga tikaman.
2 Ey Egamiz Xudo!
Bizga shafqatingni ko‘rsatgin deya,
Biz Sendan umid qilamiz.
Xo‘jayini qo‘liga qaragan
Qullarning ko‘zlari kabi,
Bekasining qo‘liga qaragan

Cho‘ri qizning ko‘zlari kabi,
Ko‘zlarimiz Senga qadalgan.

3 Shafqat qil, ey Egam, shafqat qil bizga,
Ko‘rgan xo‘rliklarimiz yetib ortar.
4 Beg‘amlarning masxaralashi jonimizdan to‘ydirdi,
Kiborlarning haqoratidan pichoq borib suyakka
yetdi.

123–SANO

Dovudning ziyorat qo‘shig‘i.

1 Endi Isroil shunday desin:
“Egamiz biz tomonda bo‘lmasa edi,
2 Ha, Egamiz biz tomonda bo‘lmasa edi,
G‘animlarimiz bizga hujum qilganda,
3 Ular bizga g‘azabini sochganda,
Bizni tiriklayin yutgan bo‘lardi.
4 To‘fon bizni girdobiga tortgan bo‘lardi,
Sel bizni bosib olgan bo‘lardi.
5 Pishqirgan suvlar ustimizdan bosgan bo‘lardi.”

6 Egamizga olqishlar bo‘lsin,
Yirtqich tishlarga bizni o‘lja qilib qo‘ymadi.
7 Biz ovchining tuzog‘idan qutulgan
Qushlarga o‘xshaymiz.
Tuzoq sinib, biz qutuldik.

8 Yeru osmonni yaratgan Egamizdan
Bizga madad keladi.

124–SANO

Ziyorat qo‘shig‘i.

1 Egamizga umid bog‘laganlar Sion tog‘iga o‘xshar,
Hech qachon tebranmas, to abad mustahkam turar.
2 Tog‘lar Quddusni o‘raganday,
Hozirdan boshlab, to abad
Egamiz O‘z xalqini o‘rab olgandir.

3 Fosiq shohning saltanat hassasi*
Solihlarning yurtida uzoq qolmaydi.
Bo‘lmasa solihlar qo‘llarini yomon ishlarga uzatadi.

4 Ey Egam, yuragi to‘g‘ri bo‘lganlarga,
Yaxshilarga yaxshilik qilgin.

5 Ey Egam, egri yoʻllarga burilganlarni
Badkirdorlar bilan birga haydab yuborgin.
Isroil uzra tinchlik boʻlsin!

125–SANO

Ziyorat qoʻshigʻi.

1 Egamiz Quddusni* yana farovonlikka
erishtirganda*,
Tush koʻrayotgan odamlarga oʻxshar edik.
2 Ogʻzimiz kulgi bilan,
Tillarimiz shodlik qoʻshigʻi bilan toʻla edi.
Shunda xalqlar aytdilar:
“Ular uchun Egamiz buyuk ishlar qildi.”
3 Ha, Egamiz biz uchun buyuk ishlar qilgandi,
Biz quvonchga toʻlgandik.

4 Nagav choʻlidagi soyliklarni qayta suvga
toʻldirganday,
Ey Egam, farovonligimizni qayta tiklagin.
5 Koʻz yosh bilan urugʻ ekkanlar
Shodlik qoʻshiqlari ila hosil oʻradi.
6 Yigʻlab, urugʻ xaltasini olib boruvchilar
Shodlik qoʻshiqlari bilan qaytib keladi,
Don bogʻlamlarini olib qaytadi.

126–SANO

Sulaymonning ziyorat qoʻshigʻi.

1 Agar uyni Egamiz qurmasa,
Quruvchilarning ishi bekor boʻladi.
Agar Egamiz shaharni qoʻriqlamasa,
Qorovul behuda poyloqchilik qiladi.
2 Erta turib, kech yotganingiz ham,
Ovqat topay deb, tortgan mashaqqatingiz ham
bekordir.
Egamiz Oʻz sevganlarining ehtiyojini
Uyqularida ham qondiradi*.

3 Oʻgʻillar Egamizdan merosdir,
Farzandlar Undan mukofotdir.
4 Yoshligingizda tugʻilgan oʻgʻillaringiz
Jangchining qoʻlidagi oʻqlardaydir.
5 Oʻqdoni toʻla shunday inson baxtlidir!
Shahar darvozasi oldida

Dushmani bilan da’volashganda,
U sharmanda bo‘lib qolmaydi.

127–SANO

Ziyorat qo‘shig‘i.

1 Ey Egamizdan qo‘rqqanlar, hammangiz baxtlisiz,
Ey Uning yo‘lidan yuradiganlar, sizlar baxtlisiz.
2 Mehnatingiz samarasini yeysiz,
Baxtli bo‘lib, huzur–halovatga yetasiz.
3 Xotiningiz hovlingizdagi serhosil
Uzum tokiga o‘xshagan bo‘ladi.
Dasturxoningiz atrofidagi bolalaringiz
Yosh zaytun ko‘chatiga o‘xshagan bo‘ladi.
4 Ey Egamizdan qo‘rqadiganlar,
Shu tariqa baraka topasiz.

5 Egamiz Quddusdan turib sizga baraka bersin,
Umringiz bo‘yi Sionning gullab–yashnashini ko‘ring.
6 Yashayvering siz, nevara–chevara ko‘ring,
Isroil uzra tinchlik bo‘lsin!

128–SANO

Ziyorat qo‘shig‘i.

1 Isroil shunday deb aytsin:
“Ular yoshligimdan menga ko‘p zulm o‘tkazib keldi.
2 Ha, yoshligimdan menga zulm o‘tkazib kelgan,
Ammo meni yenga olmaganlar.
3 Meni savalab, yelkalarimda chuqur izlar qoldirdilar,
Yaralarim daladagi uzun jo‘yaklarga o‘xshar.
4 Egamiz adolatparvardir,
Fosiqlarning arqonini qirqib, meni ozod qildi.”

5 Quddusdan* nafratlanganlarning hammasi
Sharmanda bo‘lib, ortiga qaytsin.
6 Tom ustidagi o‘tlarga* o‘xshasin ular,
O‘smasdan oldin qurib qolsinlar.
7 Bunday o‘tga o‘roqchilarning hovuchi to‘lmaydi,
Bog‘lovchilarning quchog‘i to‘lmaydi.
8 O‘tgan–ketganlar ularga:
“Egamiz sizlarga baraka bersin,
Egamiz nomi bilan sizlarni duo qilamiz!” deb
aytmasin.

129–SANO

Ziyorat qo‘shig‘i.

1 Ey Egam, tubsiz suvlardan Senga nola qilaman.
2 Ey Rabbiy, mening ovozimni eshitgin!
Iltijolarimga diqqat ila quloq solgin!

3 Ey Egam, gunohlarni hisobga olsang agar,
Ey Rabbiy, kim ham bardosh bera olar?!
4 Ammo Sen kechirimlisan,
Shu bois Sendan qo‘rqamiz.

5 Egamga umid bog‘layman,
Ha, jonim Unga talpinadi.
Uning kalomiga umid bog‘layman.
6 Tongni kutgan posbondan ham ko‘proq,
Ha, tongni kutgan posbondan ham ko‘proq
Mening jonim Rabbiyga talpinadi.

7 Ey Isroil! Umid qilgin Egamizdan!
Egamiz sodiq sevgisini ko‘rsatadi.
Qutqarishga U doim tayyor!
8 Isroilni barcha gunohlaridan qutqaradigan
Uning O‘zidir.

130–SANO

Dovudning ziyorat qo‘shig‘i.

1 Ey Egam, yuragimda mag‘rurlik yo‘q,
Ko‘zlarim aslo kiborlarcha boqmaydi.
Menga g‘oyat hayratli bo‘lgan, buyuk ishlar bilan
Men o‘zimni band qilmayman.
2 Bola onasi bag‘rida tinchlanganday,
Men ham yengil tortib, tinchlanganman.
Ha, jonim tinchlangan.

3 Ey Isroil! Hozir ham, abadulabad Egamizdan umid
qilgin!

131–SANO

Ziyorat qo‘shig‘i.

1 Ey Egam, eslagin Dovudni,
U tortgan barcha azob–uqubatlarni!
2 Ey Egam, u Senga qasam ichgandi.
Ey Yoqubning qudratli Xudosi,

U Senga va’da bergandi:
3 “Men aslo uyimga kirmayman,
Yoki o‘rnimga yotmayman.
4 Ko‘zlarimga uyqu bermayman,
Qovoqlarim yumilishiga yo‘l qo‘ymayman.
5 Egamiz uchun bir joy topmagunimcha,
Yoqubning qudratli Xudosi uchun
Bir maskan bo‘lmaguncha aslo dam olmayman.”

6 Ahd sandig‘i Efratda*, deb eshitgandik,
Biz uni Yo‘r* dalalarida topib oldik.
7 “Egamizning maskaniga boraylik,
Uning poyiga sajda qilaylik”, dedik.

8 Qani, kel, ey Egam, oromgohingga
Qudrating ramzi bo‘lgan Sandiq bilan birga.
9 Ruhoniylaring solihlikni kiysinlar,
Taqvodorlaring shodlikdan kuylasinlar!

10 O‘z quling Dovudning haqi–hurmati,
Tanlagan shohingni rad qilmagin.
11 Ey Egam, Sen Dovudga ont ichgan eding,
Sen shu ontingdan aslo qaytmay deysan:
“O‘zingdan bino bo‘lgan o‘g‘illaringdan
Birini sening taxtingga o‘tqazaman.
12 Agar o‘g‘illaring Mening ahdimga rioya qilsa,
Ularga o‘rgatgan amrlarimga itoat etsa,
Ularning o‘g‘illari ham
Shoh bo‘lib, to abad sening taxtingda o‘tiradi.”

13 Ey Egam, Sen Quddusni* tanlagansan,
U yerni O‘zingga maskan qilishni istagansan.
14 Sen shunday deding:
“Men to abad yashaydigan joy shu joydir,
Bu yerda istiqomat qilishni istaganman.
15 Uning ozuqalariga mo‘l qilib baraka beraman,
U yerdagi faqirlarni to‘ydiraman.
16 Ruhoniylarni najotga burkayman,
Taqvodorlari shodlikdan kuylaydilar!
17 Dovudning naslini bu yerda ko‘kartiraman,
O‘zim tanlagan shohning chirog‘ini o‘chirmayman.
18 Uning g‘animlarini sharmandalikka o‘rayman,
Shohning boshidagi toji esa porlab turaveradi.”

132–SANO

Dovudning ziyorat qo‘shig‘i.

1 Naqadar yaxshidir,
Yoqimlidir birodarlar birga ahil yashasalar.
2 Ahillik Horunning boshiga surtilgan,
Soqoligacha oqib tushgan qimmatbaho moydaydir*,
Kiyimlari yoqasidan oqib tushgan moy kabidir.
3 Sion tog‘lariga keladigan baraka*
Xermon tog‘idagi mo‘l shabnamga o‘xshaydi.
Siondan Egamiz O‘z barakasini va abadiy hayotni
beradi.

133–SANO

Ziyorat qo‘shig‘i.

1 Ey sizlar — Egamizning qullari,
Egamizning uyida kechasi xizmat qiladiganlar,
Egamizni olqishlang!
2 Muqaddas maskan tomon
Qo‘llaringizni ko‘tarib,
Egamizni olqishlang!

3 Yeru osmonni yaratgan Egamiz
Quddusdan* turib, sizga baraka bersin.

134–SANO

1 Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin!

Egamizning nomiga madhiyalar bo‘lsin!
Hamdu sano ayting, ey Egamizning qullari,
2 Ey Egamizning uyida xizmat qiladiganlar,
Ey Egamiz uyining hovlisida xizmat qiladiganlar!
3 Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin,
U yaxshidir!
Tarannum eting Uni, bu* yoqimlidir.
4 Egamiz O‘zi uchun Yoqub naslini tanladi.
Ha, O‘zimning xazinam deb, Isroil xalqini tanladi.

5 Ha, bilaman, Egamiz ulug‘dir,
Rabbimiz barcha xudolardan yuksakdir.
6 Osmonda ham, zaminda ham,
Dengizlarda, jamiki tubsiz suvlarda
Egamiz istaganini qiladi.
7 U yerning to‘rt tomonidan bulutlarni olib keladi,

Yomg‘ir bilan birga chaqmoq yuboradi,
Omborlaridan shamol olib keladi.

8 Egamiz Misrning to‘ng‘ichlarini,
Inson hamda hayvonlarning birinchi tug‘ilganlarini
nobud qildi*.
9 Fir’avn va uning hamma a’yonlariga qarshi
Misrning orasiga Egamiz alomatu mo‘jizalarni
yubordi*.
10 U ko‘p ellar, xalqlarni qirgan,
Qudratli shohlarni bo‘g‘izlagan.
11 Amor xalqining shohi Sixo‘nni, Bashan shohi O‘gni
hamda
Kan’onning barcha shohlarini qirgan*.
12 Ularning yerini Isroil xalqiga mulk qilib berdi.

13 Egamizning nomi to abad davom etar,
Egamizning shuhrati nasllar osha davom etar.
14 Egamiz O‘z xalqiga adolat qiladi,
O‘z qullariga rahm–shafqat qiladi.

15 Xalqlarning xudolari esa kumush, oltindan,
Inson qo‘llarining mahsulidir.
16 Butlarning og‘izlari bor, so‘zlay olmaslar,
Ko‘zlari bor, ko‘ra olmaslar.
17 Quloqlari bor ularning, eshita olmas,
Ular aslo nafas ololmas.
18 Butlarni barpo qilganlar, butlarga ishonganlar
Xuddi ularga o‘xshagan bo‘lib qolar.

19 Ey Isroil xalqi, olqishlar ayting Egamizga!
Ey Horun xonadoni*, madhiyalar ayting Egamizga!
20 Ey Levi xonadoni*, olqishlar ayting Egamizga!
Ey Egamizdan qo‘rqqanlar, madhiyalar ayting Unga!
21 Quddusda istiqomat qiladigan Egamizga
Sionda olqishlar ayting!

Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin!

135–SANO

1 Shukrona ayting Egamizga, U yaxshidir!
Uning sodiq sevgisi abadiydir.
2 Shukrona ayting xudolarning Xudosiga,
Uning sodiq sevgisi abadiydir.
3 Shukrona ayting egalarning Egasiga*,
Uning sodiq sevgisi abadiydir.

4 Shukrona ayting Xudoga,
Faqatgina U buyuk ajoyibotlar koʻrsatadi.
Uning sodiq sevgisi abadiydir.
5 Shukrona ayting donolik bilan samolarni
yaratganga*,
Uning sodiq sevgisi abadiydir.
6 Shukrona ayting suvlar uzra yerni barpo qilganga*,
Uning sodiq sevgisi abadiydir.
7 Shukrona ayting ulkan yoritqichlarni yaratganga,
Uning sodiq sevgisi abadiydir.
8 Kunduzi nur sochib tursin deya,
Quyoshni yaratganga shukrona ayting.
Uning sodiq sevgisi abadiydir.
9 Tun uzra nur sochib tursin deya,
Yulduzlaru oyni yaratganga shukrona ayting.
Uning sodiq sevgisi abadiydir.

10 Shukrona ayting Misrning toʻngʻichlarini urganga*,
Uning sodiq sevgisi abadiydir.
11 Shukrona ayting Misrdan Isroilni olib chiqqanga*,
Uning sodiq sevgisi abadiydir.
12 Shukrona ayting yoʻgʻon bilaklariyu
Kuchli qoʻli ila Isroilni olib chiqqanga,
Uning sodiq sevgisi abadiydir.
13 Shukrona ayting Qizil dengizni* ikkiga boʻlganga*,
Uning sodiq sevgisi abadiydir.
14 Shukrona ayting Isroilni dengiz oʻrtasidan
oʻtkazganga,
Uning sodiq sevgisi abadiydir.
15 Shukrona ayting fir’avn va uning lashkarlarini
Qizil dengizga uloqtirganga,
Uning sodiq sevgisi abadiydir.
16 Shukrona ayting Oʻz xalqini sahro boʻylab olib
oʻtganga,
Uning sodiq sevgisi abadiydir.
17 Shukrona ayting buyuk shohlarni halok qilganga,
Uning sodiq sevgisi abadiydir.
18 Shukrona ayting qudratli shohlarni qirganga,
Uning sodiq sevgisi abadiydir.
19 Shukrona ayting Amor xalqining shohi Sixoʻnni
oʻldirganga,
Uning sodiq sevgisi abadiydir.
20 Shukrona ayting Bashan shohi Oʻgni oʻldirganga*,
Uning sodiq sevgisi abadiydir.

21 Shukrona ayting ularning yerini
O‘z xalqiga mulk qilib berganga,
Uning sodiq sevgisi abadiydir.
22 Shukrona ayting u yerlarni
O‘z quli Isroilga mulk qilib berganga,
Uning sodiq sevgisi abadiydir.

23 Shukrona ayting xor bo‘lganimizda bizni
eslaganga,
Uning sodiq sevgisi abadiydir.
24 Shukrona ayting bizni dushmanlarimizdan
qutqarganga,
Uning sodiq sevgisi abadiydir.
25 Shukrona ayting barcha jonzotlarni
oziqlantiradiganga,
Uning sodiq sevgisi abadiydir.

26 Shukrona ayting Samoviy Xudoga,
Uning sodiq sevgisi abadiydir.

136–SANO

1 Bobildagi daryolar bo‘yida o‘tirardik,
Yig‘lab, u yerlarda Quddusni* eslardik.
2 Liralarimizni o‘sha yerdagi tollarga osib
qo‘ygandik.
3 Bizni u yerda asirga olganlar:
“Qo‘shiq aytib beringlar”, derdilar,
Bizga zulm qilganlar ko‘ngillarini chog‘ qilgani:
“Bizga Quddus qo‘shiqlaridan kuylanglar”, derdilar.

4 Qanday qilib begona yurtda
Biz Egamizga qo‘shiq kuylay olardik?!
5 Ey Quddus, agar seni unutsam,
O‘ng qo‘lim qurib qolsin.
6 Agar men seni eslamasam,
Quddusni eng katta shodligim deb bilmasam,
Tilim tanglayimga yopishib qolsin.

7 Ey Egam, Quddus qulagan kunda
Edomliklar* nima qilganini yodda tutgin.
Axir, ular: “Qulating, yiqiting uni!
Poydevorigacha qulatib tashlang!” deb baqirgan.

8 Ey Bobil shahri! Qirg‘inga mahkum bo‘lgansan*.
Bizga ne qilgan bo‘lsang,
O‘shani boshingga soladiganlar baxtlidir.

9 Sening go‘daklaringni ushlab, qoyaga urib,
Tilka–pora qiladiganlar baxtlidir.

137–SANO

Dovud sanosi.

1 Ey Egam, chin dildan Senga shukrona aytaman,
Farishtalar* oldida Sening madhingni kuylayman.
2 Muqaddas Ma’bading oldida sajda qilaman,
Sodiq sevging, sadoqating uchun O‘zingga shukrona
aytaman,
Nomingni ham, so‘zingni ham har narsadan yuqori
qo‘ygansan.
3 Chaqirganimda, menga javob bergansan,
Qudrating bilan meni jasur qilgansan.

4 Ey Egam, zamin shohlari Senga shukur aytadi,
Og‘zingdan chiqqan so‘zlarni ular eshitganlar.
5 Ey Egam, ishlaringni ular kuylasinlar!
Zero, Sening shuhrating buyukdir!
6 Garchi Sen yuksak bo‘lsang–da, xor bo‘lganlarga
boqasan,
Kiborlarni Sen uzoqdan ham bilasan.

7 Kulfatda yursam ham, dushmanlarim g‘azabidan
saqlaysan,
O‘ng qo‘lingni uzatib, meni qutqarasan.
8 Ey Egam, men uchun qasos olasan*.
Sodiq sevging to abad davom etar,
O‘zing yaratganlarni tark etmagin.

138–SANO

Ijrochilar rahbariga. Dovud sanosi.

1 Ey Egam, meni O‘zing sinab ko‘rib, bilgansan,
2 Qachon o‘tirib, qachon turishimni O‘zing bilasan,
O‘y–xayollarimni uzoqdan turib anglab olasan,
3 Yurishimni, yotishimni Sen tekshirasan,
Barcha yo‘llarim Senga oyday ravshandir.
4 Biron so‘z tilimga kelmasdan oldin,
Ey Egam, Sen hammasini bilasan.
5 Meni hamma tomondan o‘rab olgansan,
Qo‘llaringni ustimga qo‘ygansan.
6 Donoliging men uchun juda ajoyibdir,
Shu qadar yuksakki, men anglay olmasman.

7 Sening Ruhingdan qochib, qayerga ham bora
olaman?!
Sening huzuringdan qayerga ham keta olaman?!
8 Agar osmonga chiqsam, Sen o‘sha yerdasan!
O‘liklar diyoriga* tushsam ham, Sen o‘sha yerdasan!
9 Saharning qanotlarini olib parvoz qilsam,
Dengizning eng uzoq chetlariga o‘rnashsam,
10 Hatto u yerda ham qo‘llaring meni yetaklar,
O‘ng qo‘ling meni quvvatlar.
11 Agarda: “Shubhasiz, meni zulmat qamrab oladi,
Atrofimda kunduz tunga aylanadi”, deb aytsam,
12 Hatto zulmat ham Sen uchun qorong‘i emas,
Tun kunduz kabi nur sochar,
Tunu kunduz Sen uchun birdir.

13 Ichki a’zolarimni Sen yaratgansan,
Onamning qornida menga shakl bergansan.
14 Senga shukrona aytaman.
Axir, qanday ajoyib qilib yaratilganman!
Sening barcha ishlaring naqadar ajoyib,
Buni men juda yaxshi bilaman.
15 Men pinhon yaratilganimda,
Yerning tubida* mahorat ila to‘qilganimda,
Suyaklarim Sendan yashirin emas edi.
16 Ko‘zlaring ko‘rgandi homila ekanimni.
Menga ajratilgan kunlar kelmasdan,
Hammasi kitobingga yozilgandi.
17 Sening niyatlaring, ey Xudo, menga qadrlidir,
Niyatlaringning son–sanog‘i naqadar ko‘pdir.
18 Qumdan ham ko‘p bo‘lardi agar ularni
sanaganimda,
Uyg‘onganimda qarasam, hamon men bilan ekansan
birga.

19 Ey Xudo, koshki fosiqni o‘ldirsang edi,
Qonxo‘r mendan uzoqlashsa edi,
20 Sen haqingda ular fitna qiladilar,
Dushmanlaring Sening noming bilan yolg‘on qasam
ichadilar.
21 Ey Egam! Sendan nafratlanganlardan men
nafratlanmaymanmi?!
Senga qarshi isyon qilganlardan men
jirkanmaymanmi?!
22 Ulardan butunlay nafratlanaman,
Ularni o‘zimning dushmanim deb bilaman.

23 Tekshirib koʻr meni, ey Xudo, yuragimni bil,
Sinab koʻr meni, tashvishlarimni bil.
24 Bilgin–chi, mening biron qabihligim bormikan?
Meni abadiy yoʻldan* yetaklab borgin.

139–SANO

1 *Ijrochilar rahbariga. Dovud sanosi.*

2 Yomonlardan meni qutqar, ey Egam,
Zoʻravonlardan himoya qil meni.
3 Ular yuraklarida qabihlikni qasd qiladi,
Doimo urush–janjallarni qoʻzgʻaydi.
4 Ular tillarini ilonday oʻtkir qiladi,
Tillaridan ilon zahri tomadi.

5 Ey Egam, meni qabihlarning qoʻlidan qutqar,
Yiqitmoqchi boʻlgan zoʻravonlardan meni himoya qil.
6 Takabburlar men uchun tuzoq qoʻyganlar,
Ular toʻrlarining iplarini yoyganlar,
Yoʻlim boʻylab menga qopqon qoʻyganlar.

7 Ey Egam, Senga aytaman: “Sen Mening
Xudoyimsan.”
Quloq sol, ey Egam, Senga iltijo qilaman.
8 Ey Egam Rabbiy, qudratli najotkorim!
Jang kunida boshimni omon saqlading.
9 Ey Egam, fosiqning istagini bajo qilmagin,
Ularning qabih rejalariga omad bermagin,
Ular magʻrurlanib ketmasin.

10 Atrofimni oʻrab olganlarning tahdidlari,
Oʻzlarining boshiga kelsin.
11 Yonayotgan koʻmir choʻgʻi oʻzlariga yogʻilsin,
Ular olovga, iflos chuqurlarga uloqtirilsin–u,
Aslo qaytib chiqmasin.
12 Tuhmatchilarga yurtda aslo joy boʻlmasin,
koʻkarmasin,
Falokat zolimning izidan tushib, uni yoʻq qilsin.

13 Bilaman, ey Egam, mazlumni himoya qilasan,
Bechoraholni adolat ila qoʻllab–quvvatlaysan.
14 Solihlar albatta Senga shukrona aytadi,
Toʻgʻri insonlar huzuringda istiqomat qiladi.

140–SANO

Dovud sanosi.

1 Senga yolvoraman, ey Egam, yonimga tez kelgin,
Senga yolvorganimda ovozimga quloq solgin.
2 Ibodatimni tutatqi nazriday qabul qilgin,
Qo‘llarimni ko‘targanimni kechki qurbonlik deb
bilgin.

3 Ey Egam, og‘zimga posbon qo‘ygin,
Lablarim eshigini qo‘riqlagin.
4 Yuragimni qabihlikka burmagin,
Yomon ishlarga qo‘shilishimga yo‘l qo‘ymagin,
Badkirdorlarning jamoasida
Ziyofatlarini yeyishimga yo‘l qo‘ymagin.
5 Mayli, solih odam meni uraversin,
Sodiq odam meni to‘g‘rilasin,
Boshim shunday a’lo moyni rad qilmasin.

Mening ibodatim muttasil
Badkirdorlarning qabih ishlariga qarshidir.
6 Ularning hakamlari qoyadan uloqtiriladi,
Shunda fosiqlar so‘zlarim haq ekanligini bilib
olishadi.
7 Badkirdorlar aytar: “Shudgor qilinib, parchalangan
yerday,
Suyaklarimiz qabr* og‘zida maydalanib, sochilib
yotibdi.”

8 Ko‘zlarim Sendadir, ey Egam Rabbiy,
Sendan panoh izlayman,
Meni tashlab qo‘ymagin.
9 Badkirdorlarning qopqonlaridan,
Ular qo‘ygan tuzoqdan meni saqlagin.
10 Men sog‘–omon o‘tib ketayin,
Fosiqlar qo‘ygan to‘rlariga o‘zlari tushsin.

141–SANO

Dovud g‘orda bo‘lgandan keyin aytgan qasidasi*.
Ibodat.*

1 Ey Egam, Senga qattiq faryod qilaman,
Ey Egam, Senga qattiq yolvoraman.
2 Dardlarimni Senga to‘kib solaman,
Qayg‘ularimni Sening oldingda aytaman.

3 Ruhim so‘lg‘in bo‘lganda,
Yo‘llarimni Sen bilasan.

Men yuradigan so‘qmoqlarda
G‘animlarim menga tuzoq qo‘yishgan.
4 O‘ng tomonimga qarab ko‘r:
Menga e’tibor beradigan biron kimsa yo‘q.
Hech qayerga qochib keta olmayman,
Men uchun hech kim qayg‘urmas.

5 Senga yolvorib aytaman, ey Egam:
“Sen mening panohimsan,
Bu dunyodagi xavfsizligim Sensan.”
6 Faryodimga quloq solgin,
Axir, oyoq osti bo‘lib ketdim–ku.

Meni ta’qib qiluvchilardan qutqar,
Ular mendan g‘oyat kuchlidirlar.
7 Meni tutqunlikdan chiqarib olgin,
Toki Senga shukrona aytay.
Menga ezgulik qilganing uchun
Solihlar atrofimni o‘rab oladi.

142–SANO

Dovud sanosi.

1 Eshitgin, ey Egam, ibodatlarimni,
Sen sodiqsan, iltijoimga quloq sol,
Sen odilsan, javob ber.
2 Men, O‘z qulingni hukm qilmagin,
Axir, Sening nazaringda hech kim solih emas.

3 Dushmanlar meni ta’qib qilgan,
Mening tanamni tuproqqa qorgan,
Azalda olamdan o‘tganlar kabi,
Meni zulmatda yashashga majbur qilar.
4 Shu bois ruhim so‘lgan,
Yuragim qo‘rquvdan uvushib qolgan.

5 Men oldingi kunlarni eslayman,
Sening hamma ishlaring haqida o‘ylayman,
Qo‘llaring ijodini xayolimga keltiraman.
6 Qo‘llarimni Senga ibodat uchun ochaman,
Qaqragan yer kabi jonim Senga tashna.

7 Ey Egam, menga tez javob ber,

Ruhim tushkunlikda,
Mendan yuz oʻgirmagin,
Toki qabrga kirganlarday boʻlib qolmayin.
8 Saharda sodiq sevgingni menga bildirgin,
Umidimni Senga bogʻlayman.
Yuradigan yoʻlimni Oʻzing koʻrsatgin,
Yuragimni Senga ochaman.
9 Ey Egam, meni gʻanimlarimdan qutqar,
Panoh istab Senga qochib borganman.
10 Sening xohishingni bajarmoqqa meni oʻrgat,
Sen Xudoyimsan, Sening ezgu Ruhing
Meni tekis soʻqmoqdan yetaklab borsin.

11 Ey Egam, Oʻz noming haqi meni saqlagin,
Adolating bilan meni kulfatdan qutqargin.
12 Sodiq sevging haqi qirgin gʻanimlarimni,
Yoʻq qilib tashlagin hamma dushmanlarimni,
Axir, men Sening qulingman–ku.

143–SANO

Dovud sanosi.

1 Egamga, suyangan qoyamga olqishlar boʻlsin,
U qoʻllarimni urushga, barmoqlarimni jangga
oʻrgatgan.
2 Egam doim menga sodiqdir,
U mening qal'am, qoʻrgʻonim, xaloskorimdir.
Ha, Egam mening qalqonim,
Unda men panoh topaman,
Xalqlarni* U menga boʻysundiradi.

3 Ey Egam, inson zoti kimdirki, unga e'tibor bersang?!
Bandalar* kimdirki, ular haqda oʻylasang?!
4 Inson umri ogʻizdan chiqqan nafasga oʻxshar,
Odamzodning hayoti oʻtkinchi soyaga oʻxshar.

5 Ey Egam, koʻklarni yorib, pastga tushgin,
Togʻlarga tekkin, ulardan tutun chiqsin.
6 Chaqmoq chaqtir, yovlarni tirqiratgin,
Oʻqlaringni ot, ularni sarosimaga solgin.
7 Yuqoridan uzat qoʻlingni, meni qutqargin,
Azim suvlardan meni chiqarib olgin,
Begonalar qoʻlidan meni qutqargin.
8 Ularning soʻzlari behuda,
Qoʻlini koʻtarib, ular yolgʻon qasam ichadi.

9 Ey Xudo, Senga yangi qo‘shiq kuylayman,
O‘n torli arfa chalib, Seni tarannum etaman.
10 Shohlarga Sen zafar ato etasan,
Quling Dovudni shafqatsiz qilichdan qutqarasan.
11 Kelgindilarning qo‘lidan
Meni xalos qil, qutqargin.
Ularning so‘zlari behuda,
Qo‘lini ko‘tarib, ular yolg‘on qasam ichadi.

12 O‘g‘illarimiz yoshligida yaxshi o‘sgan ko‘chatga
o‘xshasin,
Qizlarimiz saroyning o‘ymakor ustunlariga
o‘xshasin.
13 Omborlarimiz noz–ne’matlarga to‘lib–toshsin,
Qo‘ylarimiz minglab, o‘n minglab yaylovlarda
ko‘paysin.
14 Ho‘kizimiz og‘ir yuklarni tortsin*,
Devorlarimiz darz ketmasin,
Odamlarimiz surgun bo‘lmasin,
Ko‘chalarimizda oh–voh, g‘amu kulfat bo‘lmasin.

15 Naqadar baxtlidir bunday insonlar!
Baxtlidir Xudoni Egamiz deb bilgan xalq!

144–SANO

Dovudning hamdu sanosi.

1 Ey Xudoyim, Shohim! Seni ulug‘layman!
To abad Sening nomingni olqishlayman!
2 Har kuni Seni olqishlayman,
Senga to abad hamdu sano aytaman.

3 Egamiz buyukdir, madh etilsin yanada,
Aql yetmas Uning buyukligiga.

4 Ey Egam, bir nasl boshqasiga maqtar ishlaringni,
Ular e’lon qilar qudratli ishlaringni.
5 Ular shonli dabdabangni, ulug‘vorligingni
so‘ylaydilar,
Men esa ajoyib mo‘jizalaring haqida o‘ylayman*.
6 Odamlar qo‘rqinchli ishlaring qudrati haqida
aytadilar,
Men esa buyukligingni e’lon qilgayman.
7 Insonlar cheksiz ezguligingni xotirlab,
gapiraveradilar.
Adolatingni ular sevinch ila kuylaydilar.

8 Egamiz inoyatli, rahmdildir,
Jahli tez chiqmaydi, sodiq sevgisi mo‘ldir.
9 Egamiz har kimsaga himmat qilar,
Yaratganlarining har biriga shafqat aylar.

10 Ey Egam, jamiki yaratganlaring Senga shukur
aytar,
Jamiki taqvodorlaring Senga olqishlar kuylar.
11 Saltanating shuhratini ular hikoya qilar,
Sening qudrating haqida ular so‘ylab yurar.
12 Hammani qudratli ishlaringdan,
Saltanating shuhratiyu dabdabasidan xabardor qilar.
13 Sening saltanating abadiy shohlikdir,
Hukmronliging nasllar osha davom etar*.

14 Yiqilayotganlarga Egamiz tayanch bo‘ladi,
Ikki bukilganlarning qaddini rostlaydi.

15 Ey Egam, hammaning ko‘zi umid bilan Senga
tikilar,
O‘z paytida ularning rizqini berasan.
16 Sen qo‘lingni ochib,
Jamiki jonzotning istagini qondirasan.

17 Egamiz hamma yo‘llarida adolat qilar,
Hamma ishlarida sevgisini ko‘rsatar.
18 Egamiz O‘ziga yolvorganlarning yonidadir,
Chin dildan iltijo qilganlarning yonidadir.
19 Undan qo‘rqqanlarning tilagini Egamiz qondirar,
Ularning nolasini eshitib, ularga najot berar.
20 Egamiz O‘zini sevuvchilarni asraydi,
Hamma fosiqlarni qirib tashlaydi.

21 Egamizning hamdu sanosi doimo tilimda bo‘ladi,
Jamiki jonzot Uning muqaddas nomini to abad
olqishlaydi.

145–SANO

1 Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin!

Egamni madh qil, ey jonim!
2 Tirik ekanman, Egamga hamdu sano aytaman,
Umrim boricha Xudoyimga hamdu sano kuylayman.

3 Umid bog‘lamang shahzodalarga,

Najot berolmaydigan inson zotiga.
4 Ular jon bergach, tuproqqa qaytar,
O‘sha ondayoq ularning rejasi yo‘qqa chiqar.

5 Yoqubning Xudosini madadkorim, deb aytganlar
baxtlidir,
O‘zlarining Egasi Xudodan umid qilganlar baxtlidir.
6 Ha, Yoqubning Xudosi
Osmonni, yerni hamda dengizni yaratgan.
Dengizu undagi hamma jonzotni U yaratgan,
U to abad sodiq bo‘lib qoladi,
7 Mazlumlarga adolat qiladi,
Ochlarga U non beradi.
Asirlarni ozod qiluvchi Egamizdir.
8 Egamiz ko‘rning ko‘zlarini ochadi,
Ikki bukilganlarning qaddini rostlaydi,
Egamiz solihlarni sevadi.
9 Egamiz musofirlarni asraydi,
Yetim va bevalarni qo‘llaydi,
Fosiqning yo‘llariga xalaqit beradi.

10 Egamiz to abad hukmdordir,
Ey Quddus*, sening Xudoying nasllar osha
hukmdordir!

Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin!

146–SANO

1 Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin!

Naqadar yaxshidir Xudoyimizni tarannum etmoq!
Naqadar lazzatli, munosib Unga hamdu sano
aytmoq!
2 Egamiz Quddusni qaytadan quradi,
Surgundagilarni Isroilga yig‘adi.
3 Ezilgan ko‘ngillarga U shifo beradi,
Ularning yaralariga malham qo‘yadi.
4 Yulduzlarning sonini U aniqlab chiqadi,
Ularning hammasiga nom beradi.
5 Rabbimiz buyukdir, qudrati azimdir,
Uning donoligi cheksizdir.
6 Egamiz mazlumlarni yuksaltiradi,
Fosiqlarni esa yerga urib ezadi.

7 Egamizga shukrona aytib tarannum qiling,
Xudoyimizga atab lirada kuy chaling.

8 U samolarni bulutlar ila qoplaydi,
U yerni yomg‘ir bilan ta’minlaydi,
Qir–adirlarda o‘t–o‘lan o‘stiradi.
9 U hayvonlarning rizq–ro‘zini beradi,
Qarg‘a bolalari qag‘illaganda ularga oziq beradi.
10 U otlarning kuchidan zavq olmaydi,
Sipohning kuchli oyoqlaridan xushlanmaydi.
11 Egamiz O‘zidan qo‘rqqanlardan xushlanadi,
Uning sodiq sevgisiga umid qilganlardan mamnun
bo‘ladi.

147–SANO

1 Egangni olqishlagin, ey Quddus!
Xudoyingga hamdu sano ayt, ey Sion!
2 Darvozalaring tambalarini U mustahkam qiladi,
Ichingdagi bolalaringga U baraka beradi.
3 Shohligingga U tinchlik ato qiladi,
Bug‘doyning eng yaxshisi bilan to‘ydiradi.

4 Xudo amrlarini yer yuziga yuboradi,
Uning aytgan so‘zlari tez yoyiladi.
5 U qorni oppoq ko‘rpaday yoyadi,
Qirovni kul kabi sochadi.
6 Do‘lni ushoq kabi yog‘diradi,
Uning sovug‘i oldida kim bardosh bera oladi?!
7 Kalomini yuborib, Egamiz muzlarni eritadi,
Shamolini esdirib, suvlar oqizadi.

8 Yoqub nasliga so‘zini ayon qiladi,
Qonun–qoidalarini Isroilga bildiradi.
9 Boshqa xalqlarga Egamiz shunday qilmadi,
O‘sha xalqlar Uning qonunlarini bilmaydi.

Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin!

148–SANO

1 Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin!

Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin samolardan,
Unga hamdu sanolar bo‘lsin falaklardan!
2 Ey Uning farishtalari,
Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin!
Ey Uning samoviy lashkarlari,
Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin!

3 Unga hamdu sanolar bo‘lsin, ey quyosh, ey oy,
Hamdu sanolar bo‘lsin Unga, nurli yulduzlar!
4 Hamdu sanolar bo‘lsin Unga, ey falaklar toqi,
Ey samolar uzra joylashgan suvlar!*

5 Egamizga hamdu sano aytsin ular,
Egamizning amri bilan yaratilgan ular.
6 Egamiz bir farmon bilan ularni to abad joyiga
o‘rnashtirdi,
Bu farmon bekor qilinmaydi.

7 Yer yuzidan Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin!
Ey jamiki tubsiz suvlar, dengiz maxluqlari,
8 Ey chaqmoq, qor, do‘l, bulutlar,
Uning amriga bo‘ysunuvchi bo‘ronlar
Egamizga hamdu sanolar ayting!

9 Madhiyalar ayting Unga, ey tog‘lar, jamiki qirlar,
Mevali daraxtlar, jamiki sadr daraxtlari!
10 Hamdu sano ayting Unga,
Ey yovvoyi hayvonlar, jamiki chorva,
Sudralib yuruvchilaru uchar qushlar!

11 Madhiyalar ayting Unga,
Ey zamindagi shohlar, jamiki xalqlar,
Shahzodalar, zamindagi hamma hukmdorlar!
12 Unga hamdu sano ayting yigitlar, qizlar,
Yoshu qari — hammangiz birga.

13 Hammasi Egamizga hamdu sano aytsin,
Yolg‘iz Uning nomi yuksakdir,
Shuhrati zaminu osmondan balanddir.
14 Egamiz O‘z xalqini qudratli qildi*.
Shu bois taqvodorlari Uni ulug‘lamoqda,
Qadrdoni Isroil xalqi Uni madh etmoqda.

Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin!

149–SANO

1 Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin!

Egamizga yangi bir qo‘shiq ayting,
Taqvodorlar jamoasiga hamdu sano ayting.
2 Isroil o‘z Yaratuvchisi tufayli quvonsin,
Quddus* xalqi o‘z Shohidan shod bo‘lsin.
3 Egamizga ular raqs ila hamdu sano aytsin,

Doira, lira Unga atab kuy chalsin.
4 Egamiz O‘z xalqidan xushnuddir,
Mazlumlarga najotni toj qilib kiydiradi.
5 Erishgan sharafi tufayli taqvodorlar shod bo‘lsin,
To‘shaklarida yotganlarida shodlanib qo‘shiq aytsin.
6 Xudoga hamdu sano tillaridan tushmasin,
Qo‘llarida dudama qilichlar bo‘lsin,
7 Toki yot xalqlardan qasos olsin,
Elatlarga jazosini bersin,
8 Ularning shohlarini zanjirband qilsin,
Aslzodalariga temir kishanlar solsin.
9 Ular ustidan Xudoning hukmini ijro etsin,
Taqvodorlari uchun sharaf shudir.

Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin!

150–SANO

1 Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin!

Xudoga hamdu sanolar bo‘lsin muqaddas maskanida,
Unga hamdu sanolar bo‘lsin
Samoda — mustahkam qal’asida.
2 Qudratli ishlari uchun Unga hamdu sanolar bo‘lsin,
Tengsiz buyukligi uchun madhiyalar bo‘lsin.

3 Unga hamdu sano ayting burg‘u chalib,
Unga hamdu sano ayting arfa, lira chalib.
4 Doira chalib, raqs ila Unga hamdu sano ayting,
Torli asbob, nay chalib, Unga madhiyalar ayting.
5 Jarangdor zillar chalib, Unga hamdu sano ayting,
Ohangdor zillarni qattiq chalib, Unga madhiyalar
ayting.
6 Egamizga hamdu sano ayting,
Ey jamiki tirik jonzotlar!

Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin!

IZOHLAR

2:6 *Sion* — Eski Ahddagi she'riy parchalarda va payg'ambarlar bitiklarida Sion so'zi ko'pincha Quddus shahriga yoki Xudoning xalqiga nisbatan ishlatilgan. To'liqroq ma'lumotga ega bo'lish uchun lug'atdagi SION so'ziga qarang.

2:7 *...Sen mening o'g'limsan, Bugun Men senga ota bo'ldim* — qadimgi paytlarda ba'zan shohanshoh va uning qo'li ostidagi boshqa bir shoh orasidagi munosabat ota–o'g'il munosabatiday tasvirlangan. Ushbu oyatda Dovud naslidan bo'lgan, toj kiydirilgan yangi shoh Xudoning o'g'li deb aytilgan. Shohanshoh Xudo esa bu oyatda o'sha shohning otasi sifatida tasvirlangan. 2 Shohlar 7:8-16, Zabur 88:20-30 ga qarang.

2:9 *...ularni urib ezasan...* — ibroniycha matndan. Qadimiy yunoncha tarjimada *...ularni boshqarasan....*

2:11 *Vahima ila tavba qiling!* — yoki *Titrab, shod bo'ling!*

2:12 *Uning o'g'li* — shu sanoning 7–oyatiga va o'sha oyatning izohiga qarang.

3:1 *O'g'li Absalomdan qochib ketgandan keyin...* — 2 Shohlar 15:13-17:22 ga qarang.

3:5 *Muqaddas tepaligi* — Quddusdagi Sion tog'iga ishora. 47:3 ning ikkinchi izohiga qarang.

4:3 *Ey insonlar, qachongacha...yolg'onlarni izlab yurasiz?!* — yoki *Ey insonlar, qachongacha mening ulug'vor Xudoyimni kamsitasiz?! Qachongacha arzimas narsalarga ko'ngil qo'yasiz?! Soxta xudolarni izlab yurasiz?!*

4:5 *Hatto g'azablanganingizda ham gunoh qilmang...* — yoki *Qo'rquvdan titrang, gunoh qilmang....*

6:6 *O'liklar diyori* — ibroniycha matnda *Sheo'l*. Qadimda Isroil xalqi *Sheo'l*ni yer ostidagi tubsiz chuqurlik, marhumlar boradigan qorong'i joy deb tushunardi. Yana 87:11-13 ga qarang.

8:5 *Bandalar* — ibroniycha matndan so'zma–so'z tarjimasi *Inson o'g'li*. Bu ibroniycha ibora ko'chma ma'noda ishlatilib, odamning o'tkinchi ekanligini bildiradi.

8:6 *O'zing* — ibroniycha matnda *elohim*. Odatda bu so'z Xudoga ishora qiladi, ammo qudratli hukmdorlar, ilohiy mavjudotlar yoki farishtalarni ham bildirishi mumkin.

8:7 *Jamiki yaratganing uzra ularni hukmron qilding...* — Ibtido 1:26-28 ga qarang.

9:1 *Qizlar* — yoki *O'g'ilning o'limi*.

9:12 *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion* (shu sanoning 15–oyatida ham bor). 2:6 izohiga qarang.

9:16 *Xalqlar o'zlari qazigan chuqurga o'zlari yiqildi...* — 7:16-17 ga qarang.

9:18 *O'liklar diyori* — ibroniycha matnda *Sheo'l*. 6:6 izohiga qarang.

10:6 *Qabihning ustiga cho'g', oltingugurt yog'diradi...* — Ibtido 19:24-25 ga qarang.

10:6 *garmsel* — hosilga katta ziyon keltiradigan issiq shamol. Bu o'rinda majoziy ma'noda ishlatilib, Xudoning hukmini bildiradi.

13:1 *Ahmoqlar* — *ahmoqlar* deb tarjima qilingan ibroniycha so'z axloqsiz odamlarga

ishora qiladi. Bunday odamlar Xudoni sevishni va Unga ishonishni rad qiladilar.

13:7 *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion*. 2:6 izohiga qarang.

14:1 *Sening muqaddas tog‘ing* — Quddusdagi Sion tog‘iga ishora. 47:3 ning ikkinchi izohiga qarang.

15:10 *o‘liklar diyori* — ibroniycha matnda *Sheo‘l*. 6:6 izohiga qarang.

15:10 *Taqvodoring* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *Muqaddas bo‘lganing*.

17:3 *qoya* — bu obraz ba’zan ibroniy she’riyatida ko‘chma ma’noda qo‘llangan bo‘lib, Egamizni toqqa o‘xshatadi. Egamizning xalqi o‘z dushmanlaridan qutulish uchun, qochib Egamizda panoh topadi. Bu obraz Egamizning barqarorligini va qoyaday mustahkam ekanligini ko‘rsatadi.

17:3 *qudratli najotkorim* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *najotimning shoxi* yoki *meni qutqaradigan shox*. Ho‘kizning shoxi kuch–qudrat ramzi edi, chunki ho‘kiz qadimiy Yaqin Sharqdagi eng kuchli hayvonlardan biri edi.

17:6 *o‘liklar diyori* — ibroniycha matnda *Sheo‘l*. 6:6 izohiga qarang.

17:11 *karub* — qanotli samoviy mavjudot. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi KARUB, KARUBLAR so‘ziga qarang.

17:14 *…Xudoyi Taoloning sadosi eshitildi* — ba’zi ibroniy qo‘lyozmalaridan va qadimiy yunoncha tarjimadan (yana 2 Shohlar 22:14 ga qarang). Ibroniycha matnda *do‘l va qip–qizil cho‘g‘* degan ibora bu misraning oxiriga qo‘shilgan.

17:16 *Zamin poydevori* — qadimda Isroil xalqining tasavvuriga ko‘ra, yer tep–tekis bo‘lib, yer ostida buyuk dengiz bor edi, dengiz tubida o‘rnatilgan ulkan ustunlar yerni ushlab turardi. Bu ustunlar dengiz tubidagi poydevorga tayanardi.

18:4-5 *Samo, falak aytmas bir gap…*[5] *Ammo xabarlari…* — yoki *Biron xalq yo‘qki, samoyu falakning ovozini eshitmasa, Til yo‘qki, uni tushunmasa.* [5] *Ammo ularning ohanglari….*

19:3 *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion*. 2:6 izohiga qarang.

19:10 *Ey Egam…javob bergin bizga* — yoki *Ey Egam, ato qilgin g‘alaba. Ey Shohimiz, iltijo qilganimizda, javob bergin bizga*.

21:13 *buqalar* — sano ijodkori bu so‘z orqali dushmanlarini nazarda tutgan. U dushmanlarini yana sherlar (shu sanoning 14, 22–oyatlariga qarang), ko‘ppaklar (shu sanoning 17, 21–oyatlariga qarang) va yovvoyi buqalar (shu sanoning 22–oyatiga qarang) deb ataydi.

21:13 *Bashan o‘lkasi* — Bashan Jalila ko‘lining shimoli–sharqida joylashgan bo‘lib, o‘zining ko‘m–ko‘k yaylovlari va sog‘lom nasldor, chorvasi bilan mashhur edi.

21:16 *Madorim qurib, sopol parchasiday bo‘lib qoldim* — yoki *Og‘zim sopol parchasiday qurib ketdi*.

21:17 *…Qo‘lu oyoqlarimni ular ilma–teshik qiladi* — ba’zi ibroniy qo‘lyozmalaridan, qadimiy yunoncha va suryoniycha tarjimalardan. Ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *…Sher kabi, qo‘l–oyoqlarim*. Bu iborani *…Ular sher kabi, qo‘l–oyoqlarimni bosib turadilar* yoki *…Ular sher kabi, qo‘l–oyoqlarimni g‘ajiydilar* deb tarjima qilsa ham bo‘ladi.

21:27 *…yeb to‘yadilar…* — sano ijodkori Xudodan olgan yordami uchun Xudoga

shukrona bildirish niyatida Ma’badga nazr olib kelgan. So‘ng o‘sha nazrning bir qismini taom sifatida qashshoqlarga ulashib bergan.

22:4 *zulmat vodiysi* — yoki *o‘lim vodiysi zulmati*.

22:4 *tayoq* — yovvoyi hayvonlarni haydab yuborish uchun ishlatilgan.

22:4 *Xivich* — qo‘ylarga yo‘l ko‘rsatish, ularni boshqarish va xavfli joylardan qutqarish uchun ishlatilgan.

23:2 *U olamni o‘rnatgan…ummonlar uzra* — qadimda Isroil xalqining tasavvuriga ko‘ra, yer tep–tekis bo‘lib, yer ostida buyuk dengiz bor edi, dengiz tubida o‘rnatilgan ulkan ustunlar yerni ushlab turardi. Bu ustunlar dengiz tubidagi poydevorga tayanardi.

23:3 *Uning tepaligi* — Quddusdagi Sion tog‘iga ishora. 47:3 ning ikkinchi izohiga qarang.

23:6 *…Xudoga intilgan Yoqub nasli…* — yoki *…Yoqubning Xudosiga intilgan odamlar….*

24:1 Bu sano ibroniychada muvashshah usulida yozilgan she’rdir. Bu sanoning har bir oyatidagi birinchi so‘z ibroniy alifbesi tartibi bo‘yicha boshlanadi.

25:3 *…Senga doim sodiqman* — yoki *…Sadoqating tufayli yo‘limni topaman*.

27:2 *maskan* — bu o‘rindagi ibroniycha so‘z Ma’badning Eng muqaddas xonasiga ishora qiladi.

28:1 *ilohiy zotlar* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *Xudoning o‘g‘illari*. Bu ibora samoda yashaydigan mavjudotlarga, jumladan, farishtalarga nisbatan ishlatilgan. Xudoning taxti atrofida samoviy mavjudotlar yig‘ilgani haqida Eski Ahdda bir necha marta so‘z yuritilgan (misol uchun, 81:1, 88:6-8 ga va 3 Shohlar 22:19-22, Ishayo 6:1-8 ga qarang).

28:2 *Muqaddas ulug‘vorlikka burkangan Egamizga sajda qiling!* — yoki *Egamizning muqaddas maskani ulug‘vorligi ichra Unga sajda qiling!* yoxud *Muqaddas liboslarda Egamizga sajda qiling!*

28:5 *Lubnondagi sadr daraxtlari* — Lubnon tog‘larida o‘sadigan bu sadr daraxtlari dunyoning o‘sha hududidagi eng katta daraxt turlaridan edi.

28:6 *Xermon tog‘i* — ibroniycha matnda *Siriyon*, Xermon tog‘ining yana bir nomi (Qonunlar 3:9 ga qarang). Xermon tog‘i — hozirgi Suriyaning eng baland tog‘i.

28:9 *…ulkan daraxtlarni egib yuboradi…* — yoki *…bug‘u tug‘ishiga sabab bo‘ladi….*

28:10 *to‘fon* — shu sanoning 3–oyatida aytib o‘tilgan suvlarga ishora qilingan, shuningdek, olamni yo‘q qilib yuborgan to‘fonga ishora qilayotgan bo‘lishi ham mumkin (Ibtido 7:1-8:22 ga qarang). Xudo bu qudratli kuchlarni boshqaradi.

29:4 *o‘liklar diyori* — ibroniycha matnda *Sheo‘l*. 6:6 izohiga qarang.

29:10 *Tuproq Senga hamdu sano aytarmi?!* — 6:6 ga qarang.

29:12 *Aza libosi* — ibroniycha matnda *Qanor*. Qanor dag‘al qoramtir mato bo‘lib, echki yoki tuya junidan to‘qilgan. Qanorga o‘ranib olish umidsizlikni va qayg‘uli holatni ifodalaydi. Ko‘pincha bu harakat Xudodan kechirim so‘rab ibodat qilish va Undan madad tilash bilan birgalikda amalga oshirilgan (shu sanoning 8-10–oyatlariga qarang).

30:11 *Gunohlarim* — ibroniycha matndan. Qadimiy yunoncha va suryoniycha

tarjimalarda *kulfatlarim*.

30:18 *O‘liklar diyori* — ibroniycha matnda *Sheo‘l*. 6:6 izohiga qarang.

31 *qasida* — ta’lim beradigan yoki marsiya mazmunidagi she’r. Bu o‘rindagi ibroniycha so‘zning ma’nosi bahsli.

32:7 *U dengiz suvlarini…joylab qo‘ygan* — Ibtido 1:6-8 ga qarang.

33:1 *Dovud…uning huzuridan quvilgandan keyin…* — 1 Shohlar 21:10-22:1 ga qarang (Abumalek nomi Filist shohlariga nisbatan ishlatilgan unvon bo‘lishi mumkin).

33:2 Bu sano ibroniychada muvashshah usulida yozilgan she’rdir. Bu sanoning har bir oyatidagi birinchi so‘z ibroniy alifbesi tartibi bo‘yicha boshlanadi.

34:13 *…Men qanor kiyib, ro‘za tutib, qayg‘u chekardim* — qanor dag‘al qoramtir mato bo‘lib, echki yoki tuya junidan to‘qilgan. Qanor kiyib olish va ro‘za tutish umidsizlikni va qayg‘uli holatni ifodalaydi. Ko‘pincha bu harakat Xudodan kechirim so‘rab ibodat qilish va Undan madad tilash bilan birgalikda amalga oshirilgan.

34:13 *Boshimni quyi solib, ibodat qilardim* — yoki *Ular uchun ibodat qilardim, ammo mening ibodatlarim javobsiz qolardi*.

36:1 Bu sano ibroniychada muvashshah usulida yozilgan she’rdir. Bu sanoning har bir oyatidagi birinchi so‘z ibroniy alifbesi tartibi bo‘yicha boshlanadi.

37:6 *Aqlsizligim* — gunohkorona xulq–atvor nazarda tutilgan.

38:1 *Yodutun* — 1 Solnomalar 16:41-42, 25:1, 3 ga qarang.

39:7 *Gunoh qurbonligi* — birortasi bilmay qilgan gunohi uchun Xudodan kechirim so‘rab keltirgan qurbonligi. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi QURBONLIK so‘zi ostida berilgan GUNOH QURBONLIGI iborasiga qarang.

39:7 *Sen qurbonligu nazrni istamading…Itoat qilishim uchun Sen quloqlarimni ochding* — 1 Shohlar 15:22 ga qarang.

39:8 *Muqaddas bitiklarda men haqimda yozilgan* — Qonunlar 17:14-20 nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin, bu oyatlarda Isroil shohlari uchun ko‘rsatmalar berilgan.

41:1 *Ko‘rax nasli* — ular Ma’bad sozandalari edi (1 Solnomalar 6:31-38 ga qarang).

41:1 *qasida* — 31–sanoning izohiga qarang.

41:7 *Xermon* — hozirgi Suriyaning eng baland tog‘i.

41:7 *Mizor tog‘i* — aynan qayerda joylashgani ma’lum emas. Xermon tog‘iga yaqin yerda bo‘lishi mumkin.

42:3 *Muqaddas tog‘ing* — Quddusdagi Sion tog‘iga ishora. 47:3 ning ikkinchi izohiga qarang.

43:1 *Ko‘rax nasli* — 41:1 ning birinchi izohiga qarang.

43:1 *qasida* — 31–sanoning izohiga qarang.

43:3 *…Ozod qilding Sen otalarimizni* — yoki *…Sen otalarimizni gullatib–yashnatding* yoxud *…Sen begona xalqlarni quvib yubording*.

44:1 *Ko‘rax nasli* — 41:1 ning birinchi izohiga qarang.

44:1 *qasida* — 31–sanoning izohiga qarang.

44:7 *Xudo bergan taxting…* — yoki *Ey Xudo, taxting….*

44:9 *mirra* — ma’lum bir daraxtlarning qotgan yelimidan tayyorlangan xushbo‘y modda.

44:10 *Ofir* — bu yurt Arabiston yarim orolining janubida joylashgan bo‘lishi mumkin. Ofir oltini eng sifatli oltin hisoblangan.

44:13 *Tir* — Finikiyada muhim ahamiyatga ega bo‘lgan shahar. Bu shahar Isroildan shimolda, O‘rta yer dengizi bo‘yida joylashgan edi. Bugungi kunda bu yer Livan mamlakatining janubiy qismini tashkil qiladi.

45:1 *Ko‘rax nasli* — 41:1 ning birinchi izohiga qarang.

45:5 *Xudo shahri* — Quddusga ishora.

45:10 *Qalqonlar* — yoki *Jang aravalari*.

46:1 *Ko‘rax nasli* — 41:1 ning birinchi izohiga qarang.

46:10 *Zaminning shohlari* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *Zaminning qalqonlari* (83:10 ga qarang).

47:1 *Ko‘rax nasli* — 41:1 ning birinchi izohiga qarang.

47:2 *O‘zining muqaddas tog‘i* — Quddusdagi Sion tog‘iga ishora. 47:3 ning ikkinchi izohiga qarang.

47:3 *Buyuk Shohning shahridagi, Uning shimolidagi…* — yoki *Buyuk Shohning shahri bo‘lgan, Zofunning buyuk cho‘qqilariga o‘xshagan….* Ibroniy tilida odatda *Zofun* so‘zi “shimol” ma’nosini ifodalab, Sion tog‘i Quddus shahrining shimoliy qismida joylashganiga ishora qilayotgan bo‘lishi mumkin. Ammo *Zofun* Isroildan shimolda, Finikiyada joylashgan bir tog‘ning ham nomidir. Bu hududda yashagan xalqlarning e’tiqodi va tasavvuriga ko‘ra, xudolar aynan shu tog‘da yig‘ilishardi. Ba’zi olimlarning fikri bo‘yicha, sano ijodkori bu yerda o‘zining, Xudo Sion tog‘ida yashaydi, degan ishonchini ta’kidlash uchun bu parchada Zofun tog‘iga ishora qilyapti.

47:3 *Sion tog‘i* — Quddusdagi Ma’bad qurilgan tepalik Sion tog‘i deb atalgan. Eski Ahddagi she’riy parchalarda va payg‘ambarlar bitiklarida Sion so‘zi ko‘pincha Quddus shahriga yoki Xudoning xalqiga nisbatan ishlatilgan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi SION so‘ziga qarang.

47:8 *Tarshish* — hozirgi Ispaniyaning hududida joylashgan bu bandargoh shahar o‘zining katta va haybatli kemalari bilan mashhur edi. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi BANDARGOH so‘ziga qarang.

47:13 *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion*. 2:6 izohiga qarang.

48:1 *Ko‘rax nasli* — 41:1 ning birinchi izohiga qarang.

48:8 *hayoti* — yoki *birodarining hayoti*.

48:12 *…berganda ham…Maskani nasldan naslga o‘taveradi* — qadimiy yunoncha va suryoniycha tarjimalardan. Ibroniycha matnda *…bergan. Ular, uylarimiz to abaddir, maskanlarimiz nasldan naslga o‘taveradi, deb o‘ylaydilar*.

48:15 *…o‘liklar diyori…O‘liklar diyori…* — ibroniycha matnda *…Sheo‘l…Sheo‘l…* (shu sanoning 16–oyatida ham bor). 6:6 izohiga qarang.

49 *Osif* — 1 Solnomalar 6:31-33, 39-43, 25:1-2 va Ezra 2:41 ga qarang.

49:2 *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion*. 2:6 izohiga qarang.

50:1-2 *Natan payg‘ambar kelib, Dovudning Botsheva bilan qilgan gunohini fosh etgandan keyin…* — 2 Shohlar 11:1-12:25 ga qarang.

50:8 *o‘rgatgin* — yoki *o‘rgatasan*.

50:9 *issop o‘ti* — bu o‘simlikdan ko‘pincha poklash marosimlarida odamlarga yo narsalarga suv yoki qon sepish uchun ishlatilgan (Chiqish 12:21-23, Levilar 14:1-7 va Sahroda 19:1-19 ga qarang). Bu o‘rinda sano ijodkori kechirim orqali ruhan poklanish istagini ifodalab, poklanish marosimiga ishora qilyapti.

51:1-2 *Edomlik Doyeg…xabar bergandan keyin…* — 1 Shohlar 21:7, 22:9-10 ga qarang.

51:1-2 *qasida* — 31–sanoning izohiga qarang.

52:1 *qasida* — 31–sanoning izohiga qarang.

52:2 *Ahmoqlar* — 13:1 izohiga qarang.

52:7 *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion*. 2:6 izohiga qarang.

53:1-2 *Zifliklar…xabar berganlaridan keyin…* — 1 Shohlar 23:14-25, 26:1-5 ga qarang.

53:1-2 *qasida* — 31–sanoning izohiga qarang.

54:1 *qasida* — 31–sanoning izohiga qarang.

54:16 *o‘liklar diyori* — ibroniycha matnda *Sheo‘l*. 6:6 izohiga qarang.

55:1 *Filist xalqi Dovudni Gat shahrida tutib olgandan keyin…* — 1 Shohlar 21:10-15, 27:1-4 ga qarang.

55:8 *Jinoyatlari uchun ularni uloqtir…* — yoki *O‘zlarining jinoyatlari uchun ular jazodan qutulib qoladilarmi?!*

56:1 *…g‘orda yashirinib qutulganidan keyin…* — 1 Shohlar 24:1-22 ga qarang.

56:3 *…Men uchun qasos oluvchi Xudoga* — yoki *…Hayotim uchun O‘z maqsadini amalga oshiradigan Xudoga* yoxud *…Menga ezgulik qiladigan Xudoga*.

56:5 *sherlar* — sano ijodkorining dushmanlariga ishora qilayotgan ko‘chma ma’nodagi so‘z.

58:1 *Shoul Dovudni o‘ldirish uchun uning uyini kuzatishga kishi yuborgandan keyin…* — 1 Shohlar 19:11-17 ga qarang.

59:1-2 *Oram–Naxrayim* — ibroniychadagi ma’nosi *Ikki daryoning Orami* demakdir. Bu yer Furot daryosi bo‘yida joylashgan bo‘lib, hozirgi Suriya mamlakatining shimoliy qismini va hozirgi Turkiyaning janubi–sharqiy qismini qamrab olardi.

59:1-2 *Oram–Zo‘vo* — bu yer hozirgi Suriya mamlakatining markaziy qismida joylashgan edi.

59:1-2 *Dovud Oram–Naxrayim va Oram–Zo‘vo xalqi bilan urush qilayotgan paytda…* — 2 Shohlar 8:3-8, 10:16-18 va 1 Solnomalar 18:3-11, 19:6-19 ga qarang.

59:1-2 *Tuz vodiysi* — O‘lik dengizning janubidagi o‘lka.

59:5 *sharob* — bu o‘rinda Xudo g‘azabining ramzi bo‘lib, sharobdan mast bo‘lish

Xudoning hukmiga duchor bo‘lishni bildiradi (Ishayo 51:17-23, Yeremiyo 25:15-29 ga qarang).

59:6 *Ular kamon o‘qlaridan yashirinib olsin deya…* — yoki *Ular haqiqat haqi bayroq ostida yig‘ilsin, deya…*.

59:7 *…Iltijoimizga javob bergin…* — yoki *…Iltijoimga javob bergin…*.

59:8 *…O‘z muqaddas makoningdan va’da bergansan…* — yoki *…Sen muqaddassan, va’da bergansan…*.

59:8 *Shakam* — Quddusdan qariyb 50 kilometr shimolda, Isroil tepaliklarida joylashgan shahar.

59:8 *Suxot vodiysi* — Iordan daryosining sharq tomonida joylashgan.

59:9 *Gilad…Manashe…* — Gilad o‘lkasi Iordan daryosining sharq tomonida joylashgan. Manashe Isroil xalqining qabilalaridan biri bo‘lib, bu qabilaning hududi Iordan daryosining sharq va g‘arb tomonida joylashgan edi.

59:9 *…Efrayim…Yahudo…* — Isroil xalqining ikkita yetakchi qabilasi. Efrayim Isroilning shimolida, Yahudo janub tomonida joylashgan edi. Ikkala qabila ramziy ma’noda butun Isroil xalqini ifoda etadi.

59:10 *…chorig‘imni otaman…* — qadimgi Isroilda kimdir yerdan bir qismini mulk qilib olishga da’vogarlik qilganda chorig‘ini otgan, shu ramziy xatti–harakat odat bo‘lib qolgan.

59:10 *Mo‘ab…Edom…Filistlar* — Isroilning sharq, janub va g‘arbidagi qo‘shni xalqlari bo‘lib, ular Isroilga dushman edilar. Mo‘ab yurti O‘lik dengizning sharqida, Edom yurti O‘lik dengizning janubida joylashgan edi. Filistlar O‘rta yer dengizi bo‘yida yashagan.

59:11 *mustahkam shahar* — Edom yurtining poytaxti Sela nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin.

61:1 *Yodutun* — 1 Solnomalar 16:41-42, 25:1, 3 ga qarang.

62:1 *Dovud Yahudo cho‘lida bo‘lgandan keyin…* — 2 Shohlar 15:13-28, 16:1-2, 13-14, 17:16, 27-29 ga qarang.

64:2 *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion*. 2:6 izohiga qarang.

64:4 *ustimizdan* — qadimiy yunoncha va lotincha tarjimalardan. Ibroniycha matnda *ustimdan*.

64:4 *…kechirasan gunohlarimizni* — yoki *…poklaysan gunohlarimizdan*.

65:6 *Xudo dengizni quruq yerga aylantirdi, Ota–bobolarimiz bahrdan yurib o‘tdi…* — Chiqish 14:21-22 ga qarang.

65:12 *Farovonlik* — ibroniycha matndan. Qadimiy yunoncha, suryoniycha va lotincha tarjimalarda *keng yer*, ya’ni ozod, bexatar o‘lka.

67:9 *Sinay tog‘ining Xudosi* — Isroil xalqi Misrdan Kan’on yurtiga ketganda, Xudo Sinay tog‘ida ularga O‘zini zohir qilgan edi (Chiqish 19:10-25 ga qarang).

67:10 *yering* — Isroil xalqi o‘rnashgan Kan’on yurti.

67:15 *Zalmon tog‘i* — Shakam shahri yaqinida joylashgan Ebal tog‘ining yoki Garizim tog‘ining yana bir nomi (Hakamlar 9:46-49 ga qarang) yoki Iordan daryosining

sharqidagi bir tog‘.

67:16 *Bashanning tog‘i* — Bashan o‘lkasida, Jalila ko‘lidan qariyb 60 kilometr shimoli–sharqda joylashgan Xermon tog‘i nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin. Xermon tog‘i hozirgi Suriyaning eng baland tog‘i bo‘lib, uchta alohida–alohida cho‘qqisi bor.

67:17 *Xudo makon qilib tanlagan tog‘* — Quddusdagi Sion tog‘iga ishora. 47:3 ning ikkinchi izohiga qarang.

67:19 *Yuksaklar* — Sion tog‘ida joylashgan Ma’bad nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin. Sano ijodkori Rabbiyni o‘z taxtiga ko‘tarilayotgan g‘olib shoh sifatida tasvirlaydi.

67:28 *…Benyamin…Yahudo…Zabulun, Naftali…* — Isroil xalqining qabilalaridan to‘rttasi. Benyamin va Yahudo qabilalari Isroil yurtining janubida, Zabulun va Naftali qabilalari shimolida joylashgan edi.

67:29 *Ey Xudo, ko‘rsatgin qudratingni!* — ko‘plab ibroniy qo‘lyozmalaridan, qadimiy yunoncha va suryoniycha tarjimalardan. Ibroniycha matnda *Sizlar qudratli bo‘lasizlar, deb Xudoyingiz qaror qilgan edi*.

67:31 *…qamishzor orasidagi o‘sha yovvoyi hayvon…* — Nil daryosidagi begemot nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin. Begemot Misr xalqining ramzi edi.

67:32 *Misrdan bronza keltiriladi…* — yoki *Aslzodalar Misrdan keladi…*.

67:32 *Habashiston* — ibroniycha matnda *Kush*. Bu joy Misrdan janubda bo‘lib, hozirgi Sudan va Efiopiya mamlakatlarining bir qismini o‘z ichiga olgan edi.

68:11-12 *…ro‘za tutganimda…*[12]*…qanor kiyganimda…* — qanor dag‘al qoramtir mato bo‘lib, echki yoki tuya junidan to‘qilgan. Qanor kiyib olish va ro‘za tutish umidsizlikni va qayg‘uli holatni ifodalaydi. Ko‘pincha bu harakat Xudodan kechirim so‘rab ibodat qilish va Undan madad tilash bilan birgalikda amalga oshirilgan.

68:13 *Shahar darvozasi oldida…* — qadimgi paytlarda odamlar savdo–sotiq, ijtimoiy va huquqiy masalalarni hal qilish uchun shahar darvozasi oldida yig‘ilishardi.

68:36 *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion*. 2:6 izohiga qarang.

71:5 *…Uning umri ham shunchalik uzoq bo‘lsin* — qadimiy yunoncha tarjimadan. Ibroniycha matnda *…Shunday uzoq vaqt davomida Sendan qo‘rqsinlar*.

71:10 *Tarshish* — 47:8 izohiga qarang.

71:10 *Shava* — Arabiston yarim orolining janubi–g‘arb tomonida bo‘lgani ehtimoldan holi emas. Keyinchalik Shava malikasi shoh Sulaymonga hadyalar olib kelgan edi (3 Shohlar 10:1-13 ga qarang).

71:10 *Savo* — Arabiston yarim orolining janubida yoki Afrikada, Qizil dengizning g‘arbiy bo‘yida joylashgan bo‘lishi mumkin.

72 *Osif* — 49–sanoning izohiga qarang.

72:4 *Ular og‘riq nimaligini bilmaydilar…* — yoki *Ular o‘lim paytigacha og‘riqni sezmaydilar…*.

72:10 *Shu bois har kim ularga yuz buradi, Ularning so‘zlarini suv kabi ichadi* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *Shu bois uning xalqi shu yerga qaytib keladi va mo‘l–ko‘l suvni simirib ichadi*. Ibroniycha matnda bu oyatning ma’nosi bahsli.

73 *Osif* — 49–sanoning izohiga qarang.

73 *qasida* — 31–sanoning izohiga qarang.

73:14 *Levitan* — Kan'on xalqlarining qadimiy afsonalarida uchraydigan maxluq. Levitan halokat keltiruvchi dengiz kuchlarining va o‘rnatilgan barcha tartibga tahdid soladigan buzg‘unchi kuchlarning ramzidir. Muqaddas Kitobda Xudoning Levitan ustidan qozongan g‘alabasi Uning kuch–qudrati ramzidir. Zotan, Xudo butun borliq ustidan, shuningdek, O‘z xalqining dushmanlari ustidan g‘olib bo‘lgan qudratli Hukmdordir.

73:14 *Cho‘l jonzotlari* — yoki *Cho‘lda yashaydigan odamlar*.

73:16 *oy* — yoki *yulduzlar*.

74:1 *Osif* — 49–sanoning izohiga qarang.

74:4 *Zamin ustunlari* — 17:16 izohiga qarang.

74:9 *sharob* — 59:5 izohiga qarang.

75:1 *Osif* — 49–sanoning izohiga qarang.

75:3 *Quddus* — ibroniycha matnda *Salim*, Quddusning qadimgi nomi.

75:11 *Insonga bo‘lgan g‘azabing…* — yoki *Senga bo‘lgan inson g‘azabi…*.

75:11 *…G‘azabingdan qutulganlarni atrofingga to‘playsan* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *…G‘azabning qolganini kiyib olasan*. Oyatning bu qismidagi ibroniycha matnning ma'nosi bahsli.

75:12 *atrofidagilari* — atrofdagi xalqlarning hukmdorlari (shu sanoning 13–oyatiga qarang) yoki samodagi kengashda ishtirok etgan ilohiy zotlar nazarda tutilgan (81:1, 88:8 ga qarang).

76:1 *Yodutun* — 1 Solnomalar 16:41-42, 25:1, 3 ga qarang.

76:1 *Osif* — 49–sanoning izohiga qarang.

76:2 *…Eshitgin meni, deb Xudoga hayqiraman* — yoki *…Xudoga hayqiraman, meni eshitadi*.

76:7 *Tun bo‘yi o‘zim bilan o‘zim suhbat qurdim…* — qadimiy yunoncha va suryoniycha tarjimalardan. Ibroniycha matnda *Tunda aytgan qo‘shiqlarimni esladim…*.

77 *Osif* — 49–sanoning izohiga qarang.

77 *qasida* — 31–sanoning izohiga qarang.

77:5 *Ota–bobolarimizga amr berib…dedi* — Qonunlar 6:6-7 ga qarang.

77:9 *Efrayim jangchilari* — Efrayim qabilasi Isroilning shimoliy qismidagi eng katta va nufuzli qabila bo‘lgani bois, Eski Ahdning ba'zi o‘rinlarida Efrayim degan nom Isroilga, ya'ni shimoliy shohlikka nisbatan ishlatilgan. Bu shohlikning poytaxti Samariya edi. To‘liqroq ma'lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi EFRAYIM so‘ziga qarang.

77:9 *…Jang kunida ortiga qaytdi* — Efrayim qabilasi va Isroil, ya'ni shimoliy shohlik jangda qo‘rqoqlik ko‘rsatganligi haqida hech qayerda aytib o‘tilmagan. Bu yerda sano ijodkori ular haqida, jangdan orqaga qaytdi, deb aytganda, Isroil xalqining Xudo bilan qilgan ahdiga bevafolik qilgani va shu sababli ularning shohligi qulaganini nazarda tutgan bo‘lsa kerak (shu sanoning 60, 67-68–oyatlariga va 60–oyatning izohiga qarang).

77:12 *Zo‘van tekisligi* — Go‘shen yerlarining yana bir nomi, bu joy Nil deltasining sharq tomonida joylashgan edi. Zo‘van bu tekislikdagi muhim shahar bo‘lib, Ramzes nomi bilan ham atalar edi. Ibtido 47:11, 27 ga qarang.

77:13 *Dengizni yorib…Suvlarni devor kabi tik qilib qo‘ydi* — Chiqish 14:21-29 ga qarang.

77:14 *Kunduzi ularni…Tun bo‘yi…yetakladi* — Chiqish 13:21-22 ga qarang.

77:15-16 *U sahrodagi qoyalarni parchaladi…*[16]*…Suvlarni…oqizdi* — Chiqish 17:1-7 va Sahroda 20:2-11 ga qarang.

77:18 *Ular ataylab Xudoni sinadilar…* — Chiqish 16:2-15, Sahroda 11:4-23 ga qarang.

77:21 *Egamiz ularning gapini eshitib…Isroil nasliga qarshi qahrini sochdi* — Sahroda 11:1-3 ga qarang.

77:24 *manna* — Isroil xalqi Misrdan chiqqandan keyin to Kan’on yurtiga kirguncha, Xudo ularga yetkazib turgan maxsus yegulik. Manna, Shabbat kunidan tashqari, har kuni kechasi yerga yog‘ilardi, odamlar saharda turib, uni yig‘ib olishardi (Chiqish 16:13-35, Yoshua 5:12 ga qarang).

77:31 *…Isroilning gulday yigitlarini yer tishlatdi* — Sahroda 11:31-35 ga qarang.

77:43 *Zo‘van tekisligi* — shu sanoning 12–oyati izohiga qarang.

77:46 *chigirtkalar* — ba’zan to‘da–to‘da bo‘lib kelib, dalalardagi hosilga katta zarar yetkazadigan hasharot.

77:47 *shikamora–anjir daraxtlari* — anjirning qadimgi Yaqin Sharqda keng tarqalgan bir turi. Kattaligi yong‘oq daraxtiday, barglari esa tut barglariga o‘xshash bo‘lib, yil davomida bir necha bor hosil beradigan sersoya daraxt.

77:44-51 *[44] Misrdagi daryolarni Xudo qonga aylantirdi…*[51] *Misrning hamma to‘ng‘ich o‘g‘illarini nobud qildi…* — Chiqish 7:14-12:32 ga qarang.

77:51 *Xom avlodi* — Misrliklarga nisbatan qo‘llangan she’riy usul. Xomning o‘g‘li Mizra Misr xalqining bobokalonidir (Ibtido 10:6 ga va o‘sha oyatning ikkinchi izohiga qarang).

77:55 *boshqa xalqlar* — Qonunlar 7:1 ga qarang.

77:60 *Shilo‘* — Quddusdan qariyb 32 kilometr shimolda joylashgan bu shahar Efrayim qabilasining hududida edi. Shoh Dovud davridan oldin Shilo‘ Isroil xalqining sajda markazi bo‘lgan edi (Yoshua 18:1, 1 Shohlar 1:3 ga qarang). Keyinchalik Yahudo qabilasining hududidagi Quddus sajda markazi bo‘lib qoldi, Ma’bad Quddusda qurildi (shu sanoning 67-69–oyatlariga qarang).

77:61 *…asir qilib berdi Ahd sandig‘ini, O‘zining qudratiyu shuhrati ramzini* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *…asir qilib berdi O‘z qudratiyu shuhratini*.

77:67 *Efrayim qabilasi* — shu sanoning 9–oyatiga berilgan birinchi izohga qarang.

77:68 *Yahudo qabilasi* — Yahudo qabilasi Isroilning janubiy qismidagi eng katta qabila edi. Shu bois Eski Ahdning ba’zi parchalarida Yahudo so‘zi janubiy shohlikka nisbatan ishlatilgan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi YAHUDO so‘ziga qarang.

77:67-68 *…Efrayim qabilasini tanlamadi.* [68]*…Yahudo qabilasini…Sion tog‘ini tanladi* — Ma’badning Yahudo hududida, Quddusdagi Sion tog‘ida qurilganiga ishora (shu sanoning 60–oyatiga va o‘sha oyatning izohiga qarang).

78 *Osif* — 49–sanoning izohiga qarang.

78:7 *Isroil* — ibroniycha matnda *Yoqub*, Isroil naslining yana bir nomi (Ibtido 32:27-28 ga qarang).

79:1 *Osif* — 49–sanoning izohiga qarang.

79:2-3 *Yusuf nasli* — bu oʻrinda Isroil xalqi nazarda tutilgan. Yusuf Yoqubning Rohiladan koʻrgan toʻngʻich oʻgʻli edi. Efrayim va Manashe qabilalari Yusufning ikkala oʻgʻlidan tarqalgan nasllardir.

79:2-3 *…Efrayim, Benyamin, Manashe…* — Isroil xalqining qabilalaridan uchtasi. Efrayim va Manashe gʻoyat muhim oʻrin tutgan shimoliy qabilalar edi.

79:12 *dengiz* — yaʼni Oʻrta yer dengizi.

79:14 *Yovvoyi toʻngʻizlar…Yovvoyi jonivorlar…* — Isroil xalqining dushmanlariga ishora qilayotgan koʻchma maʼnodagi iboralar.

79:16 *novda* — ibroniycha matndan soʻzma–soʻz tarjimasi *oʻgʻil*, Xudo oʻtqazgan tokka, yaʼni Isroil xalqiga ishora qilayotgan koʻchma maʼnodagi soʻz.

79:18 *xalq* — ibroniycha matndan soʻzma–soʻz tarjimasi *inson oʻgʻli*. Shu sanoning 16–oyatiga va oʻsha oyatning izohiga qarang. Yana 8:5 izohiga qarang.

80:1 *Osif* — 49–sanoning izohiga qarang.

80:4 *bayram kunimiz* — Chayla bayrami nazarda tutilgan boʻlishi mumkin (Levilar 23:33-43 ga qarang).

80:6 *Isroil* — ibroniycha matnda *Yusuf*. 79:2-3 ning birinchi izohiga qarang.

80:7 *Yukni oldim yelkangizdan…Qoʻllaringiz savatdan ozod boʻldi* — Isroil xalqining Misrda qilgan ogʻir mehnati nazarda tutilgan (Chiqish 1:11-14 ga qarang).

80:8 *…Mariva suvlari boʻyida…* — Chiqish 17:1-7 va Sahroda 20:1-13 ga qarang.

81 *Osif* — 49–sanoning izohiga qarang.

81:1 *samodagi kengash* — Xudoning taxti atrofida samoviy mavjudotlar yigʻilgani haqida Eski Ahdda bir necha marta soʻz yuritilgan (misol uchun, 88:6-8, 3 Shohlar 22:19-22, Ayub 1:6-12, 2:1-6, 15:8, Ishayo 6:1-8 ga qarang).

81:1 *xudolar* — ibroniycha matnda *elohim* (shu sanoning 6–oyatida ham bor). Odatda bu soʻz Xudoga ishora qiladi, ammo hukmdorlar, ilohiy mavjudotlar yoki farishtalarni ham bildirishi mumkin.

81:5 *Zaminning poydevori* — 17:16 izohiga qarang.

82:1 *Osif* — 49–sanoning izohiga qarang.

82:6-8 *Edomliklar…Moʻabliklar…* — Edom Oʻlik dengizning janubida, Moʻab shu dengizning sharqida joylashgan yurtlar edi.

82:6-8 *…Ismoil avlodlari…Hojar nasllari…* — Iordan daryosining sharq tomonida yashagan qarindosh ikki arab qabilasi (Ibtido 25:12-18, 1 Solnomalar 5:10 ga qarang).

82:6-8 *Gabol* — bu oʻrinda yo Oʻrta yer dengizi boʻyidagi Finikiyaga qarashli shahar (Bibl nomi bilan ham maʼlum boʻlib, Tir shahridan shimolda joylashgan) yoki Oʻlik dengizning janubidagi yerlar nazarda tutilgan.

82:6-8 *...Ommon va Omolek...* — Ommon xalqi Iordan daryosining sharq tomonida, Omolek xalqi esa Isroildan janubi–g‘arbda, Sinay yarim orolida yashagan.

82:6-8 *...Tir...Filistiya...* — Tir Finikiyadagi shahar bo‘lib, Isroildan shimolda, O‘rta yer dengizi bo‘yida joylashgan. Filistiya O‘rta yer dengizi bo‘yida joylashgan yurt edi.

82:9 *Lut nasli* — ya’ni Edom va Mo‘ab xalqlari (Ibtido 19:30-38 ga qarang).

82:10 *...Midiyonlarni jazolaganingday...* — Hakamlar 7:1-23 ga qarang.

82:10 *...Sisaro, Yobinni qirganingday...* — Hakamlar 4:1-24 ga qarang.

82:12 *Oriv va Zayovday...* — Hakamlar 7:25 ga qarang.

82:12 *...Zevax va Zalmunoday...* — Hakamlar 8:21 ga qarang.

83:1 *Ko‘rax nasli* — 41:1 ning birinchi izohiga qarang.

83:7 *Qaqragan soylikdan* — ibroniycha matnda *Baka soyligi*. Ibroniychadagi *baka* so‘zi quruq yerlarda o‘sadigan daraxtning bir turini bildirishi mumkin. Ba’zi ibroniy qo‘lyozmalarida, qadimiy yunoncha, suryoniycha va lotincha tarjimalarda *Yig‘i soyligi*. Bu soylikning qayerda joylashgani ma’lum emas.

83:7 *suv havzalari* — yoki *barakalar*.

83:8 *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion*. 2:6 izohiga qarang.

84:1 *Ko‘rax nasli* — 41:1 ning birinchi izohiga qarang.

84:9 *bema’ni yo‘llar* — gunohkorona xulq–atvor nazarda tutilgan.

85:13 *O‘liklar diyori* — ibroniycha matnda *Sheo‘l*. 6:6 izohiga qarang.

86:1 *Ko‘rax nasli* — 41:1 ning birinchi izohiga qarang.

86:2 *muqaddas tog‘* — Quddusdagi Sion tog‘iga ishora. 47:3 ning ikkinchi izohiga qarang.

86:2 *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion* (shu sanoning 4, 5, 6–oyatlarida ham bor). 2:6 izohiga qarang.

86:4 *Misr* — ibroniycha matnda *Rahob*, Levitanning yana bir ismi, Kan’on xalqlarining qadimiy afsonalarida uchraydigan maxluq (73:14 ning birinchi izohiga qarang). Bu o‘rinda Rahob Misrning she’riy nomi sifatida kelgan (Ishayo 30:7 ga qarang).

86:4 *...Filistiya...Tir...* — Filistiya O‘rta yer dengizi bo‘yida joylashgan yurt edi. Tir Finikiyadagi shahar bo‘lib, Isroildan shimolda, O‘rta yer dengizi bo‘yida joylashgan.

86:4 *Habashiston* — ibroniycha matnda *Kush*. Bu joy Misrdan janubda bo‘lib, hozirgi Sudan va Efiopiya mamlakatlarining bir qismini o‘z ichiga olgan edi.

87:1 *Ko‘rax nasli* — 41:1 ning birinchi izohiga qarang.

87:1 *qasida* — 31–sanoning izohiga qarang.

87:4 *o‘liklar diyori* — ibroniycha matnda *Sheo‘l*. 6:6 izohiga qarang.

87:10 *har kuni* — yoki *kun bo‘yi*.

87:12 *Halokat diyori* — ibroniycha matnda *Abaddo‘n*. Bu so‘z *Sheo‘l*ni, ya’ni o‘liklar diyorini bildiradi.

87:12-13 *...qabr...[13] Zulmat diyori...Unutilganlar makoni...* — *Sheo‘l*, ya’ni o‘liklar diyori

nazarda tutilgan. 6:6 izohiga qarang.

87:16 *...umidsiz qolganman* — yoki *...mening tinka–madorim qurigan*.

88:1 *qasida* — 31–sanoning izohiga qarang.

88:4 *Sen shunday deding...* — 2 Shohlar 7:16 ga qarang.

88:7 *Ilohiy zotlar* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *Xudoning o‘g‘illari*. 28:1 izohiga qarang.

88:8 *muqaddas malaklar davrasi* — 81:1 ning birinchi izohiga qarang.

88:11 *Rahob* — Levitanning yana bir ismi, Kan’on xalqlarining qadimiy afsonalarida uchraydigan maxluq (73:14 ning birinchi izohiga qarang).

88:13 *...Tovur, Xermon tog‘lari...* — Tovur tog‘i Jalila ko‘lining janubiy qirg‘og‘idan qariyb 19 kilometr g‘arbda joylashgan. Xermon hozirgi Suriyaning eng baland tog‘idir.

88:21 *...Muqaddas moyimni surtib uni tanladim* — 1 Shohlar 16:1-13 ga qarang.

88:28 *Men uni to‘ng‘ich o‘g‘il qilib olaman...* — 2:7 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

88:49 *o‘liklar diyori* — ibroniycha matnda *Sheo‘l*. 6:6 izohiga qarang.

88:51 *...men, quling, qanchalar masxara bo‘lganimni...* — ko‘plab ibroniy qo‘lyozmalaridan, qadimiy yunoncha va suryoniycha tarjimalardan. Ibroniycha matnda *...qullaring qanchalar masxara bo‘lganini...*.

89:4 *Sen insonni tuproqqa qaytarasan...* — Ibtido 3:19 ga qarang.

90:13 *Sher va zaharli ilon* — Isroil xalqining dushmanlariga ishora qilayotgan ko‘chma ma’nodagi ibora.

91:11 *...Qudrating bilan menga qaytadan kuch ato etding* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *...Menga yangi moy surtilgan*. Bu o‘rinda moy Xudodan kuch olishga ishora bo‘lib, ko‘chma ma’noda qo‘llangan.

91:13 *Lubnondagi sadr daraxti* — 28:5 izohiga qarang.

94:8 *Marivada...Massaxda...* — Chiqish 17:1-7 ga qarang.

94:10 *Qirq yil u nasldan nafratlanib...* — Sahroda 14:33-34 ga qarang.

94:11 *...«Ular farog‘at diyorimga kirmaydi», dedim* — Sahroda 14:20-23 ga qarang.

95:9 *Muqaddas ulug‘vorlikka burkangan Egamizga sajda qiling!* — yoki *Egamizning muqaddas maskani ulug‘vorligi ichra Unga sajda qiling!* yoxud *Muqaddas liboslarda Egamizga sajda qiling!*

96:8 *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion*. 2:6 izohiga qarang.

98:2 *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion*. 2:6 izohiga qarang.

98:9 *muqaddas tog‘i* — Quddusdagi Sion tog‘iga ishora. 47:3 ning ikkinchi izohiga qarang.

101:14 *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion* (shu sanoning 17–oyatida ham bor). 2:6 izohiga qarang.

101:26 *zaminning poydevori* — 17:16 izohiga qarang.

102:5 *Hayotim* — yoki *Orzu–istaklarim*.

102:14 *…Biz tuproq ekanimiz…* — Ibtido 3:19 ga qarang.

103:3 *Osmondagi suvlar* — Ibtido 1:6-8 ga qarang.

103:5 *zaminning poydevori* — 17:16 izohiga qarang.

103:16 *…Lubnonda…sadr daraxtlaring…* — 28:5 izohiga qarang.

103:26 *Levitan* — Kan'on xalqlarining qadimiy afsonalarida uchraydigan maxluqqa ishora qiladi (73:14 ning birinchi izohiga qarang). Ammo bu o'rinda kitga yoki bahaybat dengiz maxluqiga ishora qilingan bo'lishi ham mumkin.

103:30 *Ruh* — bu o'rindagi ibroniycha so'z *nafas* ma'nosini ham ifodalaydi.

104:11 *Aytdiki…* — Ibtido 12:7, 17:8, 26:3, 28:13 ga qarang.

104:15 *Payg'ambarlarim* — Ibrohim, Is'hoq, Yoqubga ishora.

104:17 *Yusuf* — Ibtido 37:1-36, 39:1-41:57, 45:4-7 ga qarang.

104:22 *…a'yonlarimni zanjirband qilsin…* — yoki *…u a'yonlarim ustidan hukmronlik qilsin…* yoxud *…u a'yonlarimga ko'rsatma bersin…*.

104:23 *Xom yurti* — Misrga nisbatan qo'llangan she'riy usul. Xomning o'g'li Mizra Misr xalqining bobokalonidir (Ibtido 10:6 ga va o'sha oyatning ikkinchi izohiga qarang).

104:27 *Misrliklar orasida…mo'jizalarini, ajoyibotlarini ko'rsatdi* — Chiqish 7:8-11:10, 12:29-30 ga qarang.

104:28 *…Axir, Misrliklar Egamizning amrlariga itoatsizlik qildi* — qadimiy yunoncha va suryoniycha tarjimalardan. Ibroniycha matnda *…Ular Egamizning amrlariga itoatsizlik qilmadi*, ya'ni *…Muso va Horun Egamizning amrlariga itoatsizlik qilmadi*.

104:34 *chigirtkalar* — ba'zan to'da–to'da bo'lib kelib, dalalardagi hosilga katta zarar yetkazadigan hasharot.

104:37 *…Egamiz O'z xalqini Oltinu kumushga boyitib…* — Chiqish 12:33-36 ga qarang.

104:39 *…Egamiz bulutni yoydi, Kechasi…alanga berdi* — Chiqish 13:20-22 ga qarang.

104:40 *…Egamiz bedanalar berdi, Osmondan non yog'dirib, ularni to'yg'azdi* — Chiqish 16:2-15 ga qarang.

104:41 *Egamiz qoyani ochdi, suv otilib chiqdi…* — Chiqish 17:1-7 va Sahroda 20:2-11 ga qarang.

105:7 *Qizil dengiz* — ibroniycha matnda *Yom–Suf*, ma'nosi *Qamish dengizi* (shu sanoning 9, 22–oyatlarida ham bor). Bu sanodagi mana shu nom ostida hozirgi Suets qo'ltig'i (ya'ni Qizil dengizning shimoli–g'arbidagi qo'ltiq) yoki Suets qo'ltig'i va O'rta yer dengizi oralig'ida joylashgan ko'llardan biri nazarda tutilgan. Chiqish 14:10-31 dagi hodisalarning tafsilotiga ko'ra, bu dengiz kattaligidan Isroil xalqiga to'siq bo'lgan, chuqurligidan Misr lashkari cho'kib ketgan.

105:9 *U Qizil dengizga do'q urdi…Isroil xalqini dengiz tubidan o'tkazdi* — Chiqish 14:1-31 ga qarang.

105:14 *Sahroda…ular Xudoni sinadi* — Sahroda 11:4-34 ga qarang.

105:16 *…Musoga…Horunga hasad qildi* — Sahroda 16:1-35 ga qarang.

105:19 *Sinay tog'i* — ibroniycha matnda *Xorev tog'i*, Sinay tog'ining yana bir nomi.

105:19 *Sinay tog‘ida…oltin butga sajda qildilar* — Chiqish 32:1-14 ga qarang.

105:22 *Xom yurti* — Misrga nisbatan qo‘llangan she’riy usul. Xomning o‘g‘li Mizra Misr xalqining bobokalonidir (Ibtido 10:6 ga va o‘sha oyatning ikkinchi izohiga qarang).

105:24 *…ular…Egamizning va’dasiga ishonmadilar* — Sahroda 14:1-35 ga qarang.

105:28 *…bizning ota–bobolarimiz Piyor tog‘idagi Baalga sajda qilishga qo‘shildilar…* — Sahroda 25:1-13 ga qarang.

105:28 *…O‘liklarga…* — yoki *…Jonsiz butlarga….*

105:32 *Mariva suvlari bo‘yida…* — Sahroda 20:1-13 ga qarang.

106:3 *janub* — ibroniycha matnda *dengiz*. Bu o‘rinda O‘rta yer dengizining janubiy sohili yoki Aqaba qo‘ltig‘i nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin.

106:30 *bandargoh* — kemalar to‘xtaydigan joy, port. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi BANDARGOH so‘ziga qarang.

107:8 *…O‘z muqaddas makoningdan va’da bergansan…* — yoki *…Sen muqaddassan, va’da bergansan….*

107:8 *Shakam* — Quddusdan qariyb 50 kilometr shimolda, Isroil tepaliklarida joylashgan shahar.

107:8 *Suxot vodiysi* — Iordan daryosining sharq tomonida joylashgan.

107:9 *Gilad…Manashe…* — Gilad o‘lkasi Iordan daryosining sharq tomonida joylashgan. Manashe Isroil xalqining qabilalaridan biri bo‘lib, bu qabilaning hududi Iordan daryosining sharq va g‘arb tomonida joylashgan edi.

107:9 *…Efrayim…Yahudo…* — Isroil xalqining ikkita yetakchi qabilasi. Efrayim Isroilning shimolida, Yahudo janub tomonida joylashgan edi. Ikkala qabila ramziy ma’noda butun Isroil xalqini ifoda etadi.

107:10 *…chorig‘imni otaman…* — qadimgi Isroilda kimdir yerdan bir qismini mulk qilib olishga da’vogarlik qilganda chorig‘ini otgan, shu ramziy xatti–harakat odat bo‘lib qolgan.

107:10 *Mo‘ab…Edom…Filistlar…* — Isroilning sharq, janub va g‘arbidagi qo‘shni xalqlar bo‘lib, ular Isroilga dushman edilar. Mo‘ab yurti O‘lik dengizning sharqida, Edom yurti O‘lik dengizning janubida joylashgan edi. Filistlar O‘rta yer dengizi bo‘yida yashagan.

107:11 *mustahkam shahar* — Edom yurtining poytaxti Sela nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin.

108:17 *…kelsin…bo‘lsin* — yoki *…keldi…bo‘ldi*.

109:1 *Rabbim* — ibroniycha matnda *adon*. Bu o‘rinda *adon* so‘zi Xudo tanlagan shohga ishora qiladi. Mazkur sanoda Dovud o‘zining avlodi va kelajak shoh haqida bashorat qilgan. O‘sha shoh ruhoniy ham bo‘ladi va Xudoning o‘ng tomonida o‘tirib, abadiy hukmronlik qiladi (shu sanoning 4–oyatiga va 2 Shohlar 7:16, 23:2-5 ga qarang).

109:1 *Mening o‘ng tomonim* — o‘ng tomon muruvvat va baraka o‘rni deb hisoblangan.

109:2 *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion*. 2:6 izohiga qarang.

109:3 *Erta tong yosh yigitlaring…Ular muqaddas ulug‘vorlikka burkangan* — yoki *Siz muqaddas ulug‘vorlikka burkangansiz, sizning kuch–qudratingiz tonggi shabnamga*

o‘xshab har kuni yangilanib turadi. Ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *Bachadondan, sahardan sizda yoshligingiz shabnami bor* yoki *…yigitlaringizning shabnami bor*.

109:4 *“Sen Maliksidiq singari, To abad ruhoniysan”* — Dovud nasli, Maliksidiq singari, ham shoh, ham ruhoniy bo‘ladi (Ibtido 14:18-20 ga qarang). Horun va uning nasliga berilgan martabaga qaraganda, bu ruhoniylik martabasi yuksak edi (Ibroniylar 7:1-28 ga qarang).

110:1 Bu sano ibroniychada muvashshah usulida yozilgan she’rdir. Bu sanoning har bir oyatidagi birinchi so‘z ibroniy alifbesi tartibi bo‘yicha boshlanadi.

110:8 *…Egamiz ularni sadoqat, to‘g‘rilik ila ijro qildi* — yoki *…Ularga sadoqat va to‘g‘rilik bilan itoat etish shart*.

111:1 Bu sano ibroniychada muvashshah usulida yozilgan she’rdir. Bu sanoning har bir oyatidagi birinchi so‘z ibroniy alifbesi tartibi bo‘yicha boshlanadi.

113:3 *Dengiz Xudoni ko‘rdi–yu, qochdi…* — Chiqish 14:21-22 ga qarang.

113:3 *…Iordan daryosi orqaga qaytdi* — Yoshua 3:7-17 ga qarang.

113:4 *Tog‘lar qo‘chqorlar kabi sakradi…* — Chiqish 19:16-19 va Hakamlar 5:4-5 ga qarang.

113:8 *U…qoyadan buloq chiqargan* — Chiqish 17:1-7 ga qarang.

113:18 *Horun xonadoni* — Ma’badda ruhoniylar bo‘lib xizmat qilgan Horun nasli.

114:3 *O‘liklar diyori* — ibroniycha matnda *Sheo‘l*. 6:6 izohiga qarang.

115:1-2 *Juda ko‘p azob cheksam ham, Xudoga bo‘lgan ishonchim yo‘qolmadi. [2] O‘ylamasdan…* — yoki *Men Xudoga ishondim. Juda ko‘p azob chekkanimdan, o‘ylamasdan [2]….*

117:14 *…kuch–qudratimdir…* — yoki *…qudratim, shukrona qo‘shig‘imdir….*

117:22 *tamal toshi* — qadimgi paytlarda qurilishda poydevor uchun qo‘yilgan birinchi va eng muhim tosh hisoblanardi. Bu tosh poydevorning bir burchagini hosil qilib, binoning qolgan qismi o‘sha toshning joylashuvi bo‘yicha qurilardi.

117:27 *Palma shoxlarini olib, qurbongoh oldiga boring* — yoki *Qurbonlik qilinadigan hayvonni arqon bilan bog‘lab, qurbongohga olib keling*.

118:1 Bu sano ibroniychada muvashshah usulida yozilgan she’rdir. Bu sanoda 22 bayt bo‘lib, har bir bayt 8 oyatdan iborat. Baytning har bir oyati ibroniy alifbesining bir xil harfi bilan boshlanadi. Misol uchun, birinchi baytdagi oyatlar ibroniy alifbesining birinchi harfi bilan boshlanadi, ikkinchi baytdagi oyatlar ibroniy alifbesining ikkinchi harfi bilan boshlanadi va hokazo.

118:37 *…Va’dangga binoan hayotimni saqlagin* — Qumron qo‘lyozmalaridan va ba’zi ibroniy qo‘lyozmalaridan. Ibroniycha matnda *…Sening yo‘llaringdan yurarkanman, hayotimni saqlagin*.

118:83 *Tutunda qorayib, bujmaygan meshday…* — qadimgi paytlarda suyuqlik odatda hayvon terisidan qilingan meshlarda saqlanardi. Sano ijodkori o‘zini shipda osilib, tutundan qorayib, burishib ketgan meshga qiyoslaydi. Bunday mesh yaroqsiz bo‘lib,

undan foydalanib bo‘lmaydi.

119 *Ziyorat qo‘shig‘i* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *Yuqoriga chiqish qo‘shig‘i*, ya’ni Quddusga va Ma’bad turgan tepalikka chiqilayotganda aytiladigan qo‘shiq. 119-133–sanolarning hammasi “ziyorat qo‘shiqlari” deb atalgan. Ziyoratchilar diniy bayramlarni nishonlash uchun Quddusga borayotganlarida ham, bayramlarni Ma’badda nishonlaganlarida ham, sajda sifatida shu qo‘shiqlarni kuylagan bo‘lishlari mumkin. Yana 83–sanoga qarang.

119:5 *…Meshex…Kedar…* — Meshex hududi Kaspiy dengizi bilan Qora dengiz orasida, Kedar yerlari esa Arabiston sahrosida joylashgan. Odamlarning tasavvuriga ko‘ra, bu joylarda yashaydigan xalqlar varvarlar bo‘lib, ularning yerlari nihoyatda olisda deb hisoblangan.

124:3 *saltanat hassasi* — bu maxsus hassa bo‘lib, shoh va hukmdorlarning hokimiyatini bildiruvchi ramz edi.

125:1 *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion*. 2:6 izohiga qarang.

125:1 *Egamiz Quddusni yana farovonlikka erishtirganda…* — yoki *Egamiz bizni surgundan Quddusga qaytarib olib kelganda…*.

126:2 *Egamiz O‘z sevganlarining ehtiyojini Uyqularida ham qondiradi* — yoki *Egamiz O‘z sevganlariga uyqu ato qiladi*.

128:5 *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion*. 2:6 izohiga qarang.

128:6 *Tom ustidagi o‘tlar* — qadimgi Isroilda odatda uylarning tomlari tuproqdan bo‘lib, shibbalangan. Ba’zan tomlarda maysalar o‘sib chiqar, lekin quyosh va garmsel ta’sirida tez qurib qolar edi.

131:6 *Efrat* — Baytlahm shahri atrofidagi yerlar.

131:6 *Yo‘r — Xirat–Yo‘rim*ning qisqa shakli bo‘lishi mumkin. Xirat–Yo‘rim Quddusdan 15 kilometr shimoli–g‘arbda joylashgan shahar edi. Filist xalqi jangda Ahd sandig‘ini o‘lja qilib olgan edi. Isroil xalqi Ahd sandig‘ini ulardan tortib olib, mana shu yerga olib kelgan edi (1 Shohlar 6:13-7:2 ga qarang).

131:13 *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion*. 2:6 izohiga qarang.

132:2 *qimmatbaho moy* — Chiqish 30:22-33 ga qarang.

132:3 *baraka* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *shabnam*. Shabnam Xudo marhamatining ramzidir. Xudoning Sion tog‘iga bergan mo‘l–ko‘l barakasi Xermon tog‘iga tushadigan mo‘l shabnamga taqqoslangan. Xermon tog‘i hozirgi Suriyaning eng baland tog‘idir. Quddus va Ma’bad joylashgan tog‘lar undan anchagina past edi.

133:3 *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion*. 2:6 izohiga qarang.

134:3 *bu* — yoki *U*.

134:8 *Egamiz Misrning to‘ng‘ichlarini…nobud qildi* — Chiqish 12:29-30 ga qarang.

134:9 *Fir’avn va uning hamma a’yonlariga qarshi…Egamiz alomatu mo‘jizalarni yubordi* — Chiqish 7:8-11:10 ga qarang.

134:11 *Amor xalqining shohi Sixo‘nni, Bashan shohi O‘gni…qirgan* — Sahroda 21:21-35 va Qonunlar 2:24-3:11 ga qarang.

134:19 *Horun xonadoni* — Horunning avlodi Ma’badda ruhoniy bo‘lib xizmat qilgan.

134:20 *Levi xonadoni* — Ma’baddagi xizmatlarda ruhoniylarga yordam beradigan Levi qabilasining a’zolari.

135:2-3 *xudolarning Xudosi…*[3]*…egalarning Egasi* — Qonunlar 10:17 izohiga qarang.

135:5 *…samolarni yaratganga…* — Ibtido 1:1, 6-8, 14 ga qarang.

135:6 *…suvlar uzra yerni barpo qilganga…* — 23:2 izohiga qarang.

135:10 *…Misrning to‘ng‘ichlarini urganga…* — Chiqish 12:29-30 ga qarang.

135:11 *…Misrdan Isroilni olib chiqqanga…* — Chiqish 6:6, 13:3-4 ga qarang.

135:13 *Qizil dengiz* — ibroniycha matnda *Yom–Suf*, ma’nosi *Qamish dengizi* (shu sanoning 15–oyatida ham bor). 105:7 izohiga qarang.

135:13 *…Qizil dengizni ikkiga bo‘lganga…* — Chiqish 14:1-31 ga qarang.

135:19-20 *…Amor xalqining shohi Sixo‘nni o‘ldirganga…*[20]*…Bashan shohi O‘gni o‘ldirganga…* — Sahroda 21:21-35 va Qonunlar 2:24-3:11 ga qarang.

136:1 *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion* (shu sanoning 3–oyatida ham bor). 2:6 izohiga qarang.

136:7 *Edomliklar* — azaldan Isroil xalqiga dushman bo‘lib kelgan xalq, ularning yurti O‘lik dengizning janubida joylashgan edi. Bobilliklar Quddusni vayron qilganlarida, Edom xalqi ularga yordam bergan edi (yana Hizqiyol 35:5 va Obodiyo 10-14–oyatlarga qarang). To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi EDOM so‘ziga qarang.

136:8 *Qirg‘inga mahkum bo‘lgansan* — yoki *Ey qotil!*

137:1 *Farishtalar* — ibroniycha matnda *Elohim*, 8:6 izohiga qarang.

137:8 *…men uchun qasos olasan* — yoki *…mening hayotim uchun qo‘ygan o‘z maqsadingni bajarasan* yoxud *…menga ezgulik qilasan*.

138:8 *O‘liklar diyori* — ibroniycha matnda *Sheo‘l*. 6:6 izohiga qarang.

138:15 *Yerning tubi* — ona qorniga ishora qilayotgan ko‘chma ma’nodagi ibora (yana Ayub 1:21 ga qarang).

138:24 *abadiy yo‘l* — yoki *qadimgi yo‘l*, ya’ni vaqt sinovlariga bardosh bergan ishonchli yo‘l (Yeremiyo 6:16 ga qarang).

140:7 *qabr* — ibroniycha matnda *Sheo‘l*. 6:6 izohiga qarang.

141 *Dovud g‘orda bo‘lgandan keyin…* — 1 Shohlar 22:1-2 da yoki 1 Shohlar 24:1-22 da tasvirlangan voqeaga ishora.

141 *qasida* — 31–sanoning izohiga qarang.

143:2 *Xalqlar* — Qumron qo‘lyozmalaridan, ko‘plab ibroniy qo‘lyozmalaridan, qadimiy suryoniycha va lotincha tarjimalardan. Ibroniycha matnda *Xalqim*.

143:3 *Bandalar* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *Inson o‘g‘li*. Bu ibroniycha ibora ko‘chma ma’noda ishlatilib, odamning o‘tkinchi ekanligini bildiradi.

143:14 *Ho‘kizimiz og‘ir yuklarni tortsin…* — yoki *Ho‘kizlarimiz semirsin…* yoxud *Chorvamiz buzoqlar tug‘sin…*.

144:1 Bu sano ibroniychada muvashshah usulida yozilgan she’rdir. Bu sanoning har bir oyatidagi birinchi so‘z ibroniy alifbesi tartibi bo‘yicha boshlanadi.

144:5 *Ular…so‘ylaydilar, Men esa…o‘ylayman* — Qumron qo‘lyozmalaridan, qadimiy yunoncha va suryoniycha tarjimalardan. Ibroniycha matnda *Shonli dabdabang, ulug‘vorliging, ajoyib mo‘jizalaring haqida men o‘ylayman*.

144:13 *…Hukmronliging nasllar osha davom etar* — Qumron qo‘lyozmalarida, bitta ibroniy qo‘lyozmasida, qadimiy yunoncha va suryoniycha tarjimalarda shu oyatning oxiriga *Egamiz O‘zining va’dalariga sodiq va O‘zi yaratganlarning hammasiga mehribon*, deb qo‘shimcha qilingan.

145:10 *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion*. 2:6 izohiga qarang.

148:4 *samolar uzra joylashgan suvlar* — Ibtido 1:6-8 ga qarang.

148:14 *…O‘z xalqini qudratli qildi* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *…O‘z xalqi uchun bir shox chiqardi*. Eski Ahdda buqaning shoxi ko‘pincha ko‘chma ma’noda ishlatilib, kuchli hukmdorga yoki harbiy qudratga ishora qilgan.

149:2 *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion*. 2:6 izohiga qarang.

SULAYMON
PAYG‘AMBARNING
HIKMATLARI

Kirish

Sulaymonning hikmatlari kitobi maqol, matallar shaklidagi axloqiy va diniy ta’limotlardan iborat. Mazkur kitobning asosiy muallifi Isroil xalqining donishmand shohi Sulaymondir. Kitobning ba’zi qismlari Ag‘ur (30:1 ga qarang) va shoh Lemul (31:1 ga qarang) tomonidan yozilgan. Hikmatlar ko‘pincha ikki misrali she’riy shaklda kelgan.

Matallarning ko‘pchiligida kundalik hayotda uchraydigan muammolar haqida so‘z yuritiladi. Mazkur kitob “Egamizdan qo‘rqish ilmu ma’rifatning boshidir” degan dono so‘zlar bilan boshlanadi (1:7 ga qarang) va faqatgina diniy ishlar borasida emas, balki odob–axloq va aql bilan qilinishi lozim bo‘lgan ishlar haqida ham nasihat beradi. Bu hikmatlar oila va jamiyatdagi munosabatlar, donolik bilan ish yuritish, tadbirkorlik, axloq va din–diyonat kabi mavzularni qamrab oladi. Mazkur kitobda kamtarlik, sabr–toqat, kambag‘allarni hurmat qilish va do‘stga sodiqlik kabi fazilatlar haqida ko‘p fikrlar aytiladi.

Kitobdagi aksariyat hikmatlar mazmunan bir–biriga o‘zaro bog‘langan. Kitobdagi ba’zi hikmatli so‘zlar esa qisqa bo‘lib, matnga bog‘lanmagan bo‘lsa ham, o‘zida tugal ma’noni ifodalaydi.

Sulaymonning hikmatlari

(1:1-9:18)

1–BOB

Hikmatlarning qadri

1 Isroil shohi Dovud o‘g‘li Sulaymonning* hikmatlari.

2 Bu hikmatlar donolik va nasihatni o‘rgatadi,
hikmatli so‘zlarni tushuntiradi,
3 aqlli ko‘rsatmalarni,
to‘g‘rilik, adolat va odillikni ato qiladi,
4 soddalarga* idrok,
yoshlarga bilim, fahmu farosat beradi.
5 Donolar tinglab bilimini ko‘paytirsin,
idroklilar yo‘l–yo‘riq olsin.
6 Bu hikmatlar — matallarni, jumboqlarni,
dononing so‘zlarini va topishmoqlarini tushunish uchundir.

7 Egamizdan qo‘rqish* ilmu ma’rifatning boshidir*.

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

Donolik va nasihatdan nafratlangan esa nodondir*.

Yoshlarga nasihat

8 O‘g‘lim*, otang nasihatlariga quloq sol,
onang o‘gitlarini rad etma,
9 chunki ular boshingga go‘zal gulchambar,
bo‘yningga marjondaydir.
10 O‘g‘lim, agar gunohkorlar seni yo‘ldan urmoqchi bo‘lsa,
bo‘yin berma.
11 Agar ular: “Kel, bizga qo‘shil, pistirma qo‘yib qon to‘kaylik,
aybsizning yo‘lini vajsiz to‘saylik,
12 do‘zaxga* o‘xshab uni tiriklayin o‘z qa’rimizga tortaylik,
chuqur kabi butunlayin yutib yuboraylik,
13 har xil boyliklarni tortib olib,
uyimizni o‘lja bilan to‘ldiraylik,
14 hamma narsa o‘rtada bo‘lsin,
hamyonimiz bitta bo‘lsin”, deb aytsalar,
15 o‘g‘lim, ularga hamroh bo‘lma,
yo‘liga bir qadam ham bosma.
16 Chunki ular qon to‘kishga tayyordirlar,
oyoqlari yovuzlikka shoshiladi.
17 Qushni to‘r bilan tutib bo‘lmaydi,
to‘rni ko‘rgan qush pir etib uchib ketadi.
18 Yovuzlar esa o‘z qismatini ko‘ra olmaydilar,
boshqalarning jonini poylayman deb,
o‘z joniga zomin bo‘lganini bilmaydilar.
19 Ochko‘zlik bilan tortib oladiganlarning ahvoli shu!
Ular o‘z hayotiga zomin bo‘ladi.

Donolik o‘ziga chorlaydi

20 Donolik* ko‘chada chaqiradi.
Maydonda baland ovoz bilan hayqiradi.
21 Gavjum ko‘chaning boshida,
shahar darvozalarida* jar soladi.
22 “Ey nodonlar, qachongacha nodon bo‘lib yuraverasiz?!
Siz–chi, mazax qiluvchilar, qachongacha mazax qilishdan zavqlanasiz?!
Aqlsizlar, qachongacha ilm–ma’rifatdan nafratlanasiz?!
23 Pand–nasihatlarimga quloq solinglar.
Mana, sizlarga ruhimni beraman.
So‘zlarimni ochaman.
24 Lekin sizlarni chaqirganimda rad etdingiz,
qo‘llarimni uzatganimda, e’tibor bermadingiz.
25 Maslahat, pand–nasihatlarimning
hech birini qabul qilmadingiz.
26 Shuning uchun boshingizga falokat kelganda, men ham kulaman.
Vahimaga tushganingizda, mazax qilaman.

27 Vahima bo‘ronday, falokat esa to‘fonday kelganda,
kulfatu mashaqqatlar boshga tushganda,
28 ular meni chaqiradilar, lekin javob bermayman.
Ular meni qidiradilar, izlaydilar, lekin topolmaydilar.
29 Chunki ular ilm–ma’rifatdan nafratlandilar,
Egamizdan qo‘rqishni rad etdilar.
30 Maslahatlarimni, o‘gitlarimni qabul qilmadilar.
31 Shuning uchun o‘z qilmishlarining mevasini yeb,
pushaymon bo‘lib qoladilar.
32 Nodonlar yo‘ldan adashib o‘z joniga o‘zlari zomin bo‘ladi,
aqlsizlarning beg‘amligi o‘zlarini halok qiladi.
33 Lekin menga quloq solganlar osoyishta hayot kechiradi,
yomonlikning vahimasidan xalos bo‘ladi.”

2–BOB

Donolik Egamizdandir

1 O‘g‘lim*, nasihatlarimni qabul qilib,
amrlarimni yuragingda saqlasang,
2 donolikka quloq solib,
qalbingni fahm–idrokka ochsang,
3 farosatga tashna,
idrokka chanqoq bo‘lsang,
4 uni kumush izlaganday izlasang,
yashirin xazina qidirganday qidirsang,
5 Egamizdan qo‘rqish* nimaligini tushunasan,
Xudo kimligini bilasan.
6 Chunki donolikni Egamiz beradi,
bilim va idrok Uning og‘zidan chiqadi.
7 Egamiz to‘g‘ri odamni eson–omon saqlaydi,
to‘g‘ri yuradiganga O‘zi qalqon bo‘ladi.
8 Adolatli insonni himoya qiladi,
Unga sodiq bo‘lganning yo‘lini qo‘riqlaydi.
9 Shunda sen to‘g‘rilik, adolat, odillik,
ya’ni to‘g‘ri yo‘l nima ekanligini tushunasan.
10 Chunki yuragingga donolik kiradi,
ruhing esa bilimdan zavqlanadi.
11 Fahm–farosat seni himoya qiladi,
aql–idrok seni qo‘riqlaydi.
12 Yomon yo‘ldan,
yovuz gapiradiganlardan asraydi.
13 Ular to‘g‘ri yo‘lni tashlab,
qorong‘ilikda yuradi.
14 Yomon ishlardan xursand bo‘ladi,
yovuzlikdan quvonadi.

15 Ular yo‘ldan adashgan,
so‘qmoqlari ham egridir.

16 Donolik seni zinokordan,
tilyog‘lama buzuq ayoldan saqlasin.
17 Buzuq ayol yoshligidagi umr yo‘ldoshini tashlab,
Xudo oldida bergan ahdini buzgan.
18 Uning uyi o‘limga*,
yo‘llari o‘liklarning oldiga olib boradi.
19 Uning oldiga borgan odam qaytib kelmaydi,
hayot so‘qmoqlariga qaytib qadam bosmaydi.

20 Shuning uchun yaxshi odamlarning yo‘lidan yurgin,
solihlarning yo‘lidan chiqmagin.
21 Chunki to‘g‘ri odam o‘sha yerda yashaydi,
pok odam u yerda qoladi.
22 Fosiq esa yer yuzidan qirib tashlanadi,
vafosiz yo‘q qilinadi.

3–BOB

Yoshlarga nasihat

1 O‘g‘lim*, so‘zlarimni unutma,
amrlarimni yuragingda saqla.
2 Ular umringga umr qo‘shadi,
hayoting tinch bo‘ladi.

3 Sevgi va sadoqatni aslo tark etma.
Bo‘yningga marjon qilib taqib ol,
yuraging qa’riga yozib qo‘y.
4 Shunda Xudoning ham, odamlarning ham mehrini qozonasan,
ulardan izzat–hurmat topasan.

5 O‘z aql–idrokingga suyanma,
butun qalbing bilan Egamizga ishon.
6 Har ishingda Egamizni e’tirof et,
shunda U yo‘llaringni to‘g‘rilaydi*.
7 O‘zingni dono hisoblama.
Egamizdan qo‘rq*.
Yomonlikdan yuz o‘girgin.
8 Shunday qilsang jisming sog‘,
joning ham omon bo‘ladi.

9 O‘z boyliging,
birinchi hosiling bilan Egamizni ulug‘la.
10 Shunda omboring to‘lib–toshadi,

yangi sharobing yetib ortadi.

11 O‘g‘lim, Egamizning tarbiyasini rad qilmagin,
Uning tanbehidan ruhing tushmasin.
12 Ota yaxshi ko‘rgan farzandini* jazolagandek,
Egamiz ham yaxshi ko‘rgan bandasini jazolaydi*.

13 Donolikka erishgan,
aql–idrok topgan qanday baxtlidir!
14 Chunki uning bahosi kumushdan,
foydasi oltindan ham afzalroqdir.
15 U javohirlardan ham azizdir,
sen tilagan biror narsa Unga teng kelmaydi.
16 Uning o‘ng qo‘lida uzoq umr,
chap qo‘lida esa boylik va shon–shuhrat bor.
17 Yo‘li — shodlik yo‘li,
barcha so‘qmoqlari tinchdir.
18 Donolikni quchganlar uchun u hayot daraxti kabidir,
uni mahkam tutganlar baxtlidir.

19 Egamiz donolik bilan yerni yaratdi,
aql–idroki bilan osmonni o‘z o‘rniga joylashtirdi.
20 Uning aqli bilan chuqurliklar bo‘lingan,
bulutlardan shudring tushgan.
21 O‘g‘lim, donolik va fahm–farosatni mahkam ushla,
nazaringdan qochirmagin.
22 O‘shanda ular joningga hayot baxsh etadi,
bo‘yningga bezakday bo‘ladi.
23 Yo‘lingda eson–omon yurasan,
oyog‘ing qoqilmaydi.
24 Bexavotir yotasan,
uyqung shirin bo‘ladi.
25 Bexosdan keladigan ofatdan qo‘rqma.
Yovuz odam hujum qilganda ham qo‘rqma.
26 Chunki Egamiz yoningda bo‘ladi,
seni qoqilishdan asraydi.

27 Yaxshilik qilish qo‘lingdan kelsa,
muhtojlardan yordamingni ayama.
28 O‘zingda bor bo‘lsa,
qo‘shningga “kechroq kel”, “ertaga beraman”, deb aytma.
29 Senga ishonib, yoningda tinchgina yashayotgan
qo‘shningga qarshi yomon niyat qilma.
30 Senga yomonlik qilmagan odam bilan sababsiz urishma.
31 Zo‘ravonga hasad qilma,
u qiladigan ishlarni qilma.

32 Chunki Egamizga yovuzlar jirkanchdir,
U to‘g‘ri odamga hamroh bo‘ladi.
33 Fosiqning uyi Egamizning la’natiga,
solihning uyi esa qut–barakaga to‘ladi.
34 U mazax qiluvchilarni mazax qiladi,
kamtarlarga esa inoyat ko‘rsatadi.
35 Donolar shon–shuhratga erishadilar,
nodonlar esa sharmandalikka duchor bo‘ladilar.

4–BOB

Donolikdan keladigan foydalar

1 O‘g‘illarim, otangizning pand–nasihatlariga quloq solinglar,
e’tibor berib farosatli bo‘linglar.
2 Sizlarga yaxshi saboq beraman,
so‘zlarimdan yuz o‘girmanglar.
3 Men ota–onamning yolg‘iz, yosh o‘g‘li edim.
4 Bolaligimda otam menga shunday derdi:
“So‘zlarimni yuragingga jo qilib,
amrlarimni bajargin, shunda yashaysan.
5 Dono bo‘l, idrokli bo‘l,
ularni unutma, so‘zlarimdan chiqma.
6 Donolikdan yuz o‘girma, seni himoya qiladi,
uni sevgin, seni asraydi.
7 Donolikning boshi shudir, dono bo‘l,
bor–yo‘g‘ingni berib bo‘lsa ham, idrok ol*.
8 Uni hurmat qil, seni ko‘kka ko‘taradi.
Uni quchgin, seni shon–shuhratga erishtiradi.
9 Boshingga iltifot gulchambari,
shuhrat tojini kiydiradi.”

10 O‘g‘lim*, aytganlarimga quloq solib qabul qil,
shunda umring uzoq bo‘ladi.
11 Senga donolik yo‘llarini o‘rgatdim,
to‘g‘ri yo‘ldan olib yurdim.
12 Yurganingda to‘siqqa uchramaysan,
yugurganingda qoqilmaysan.
13 Yo‘l–yo‘riqlarimni qattiq ushla, qo‘yib yuborma,
ularni qo‘riqla, chunki ular hayotingdir.
14 Fosiqning so‘qmoqlariga oyoq bosma,
yovuzlar yo‘lidan yurma.
15 Hatto nazar solma,
yonidan ham o‘tma,
qayrilib uzoqdan yurgin.
16 Chunki ular yomonlik qilmasdan uxlay olmaydi,

birortasiga zarar keltirmaguncha uyqulari kelmaydi.
17 Ular fosiqlik nonini yeydi,
zo‘ravonlik sharobini ichadi.
18 Solihning yo‘li tongga o‘xshaydi,
kun chiqquncha tong yorishaveradi.
19 Fosiqning yo‘li esa zulmat kabidir,
nimaga qoqilib ketishini bilmaydi.
20 O‘g‘lim, so‘zlarimni eshit,
aytganlarimga quloq sol.
21 Ularni ko‘z oldingdan qochirma,
yuragingning qa’rida saqlagin.
22 Chunki ularni topganlarga hayot,
butun tan–joniga malham bo‘ladi.
23 Bor kuching bilan qalbingni asra,
chunki u hayot bulog‘idir.
24 Og‘zingdan egrilikni,
tilingdan ayyorlikni olib tashla.
25 Ko‘zlaring to‘g‘riga qarasin,
nigohing oldingga qaratilgan bo‘lsin.
26 To‘g‘ri yo‘lni tanlab yur*,
qadamingni o‘ylab bos.
27 O‘ngga ham, chapga ham og‘ma,
yovuzlikdan uzoqlash.

5–BOB

Zinoga qarshi ogohlantirish

1 O‘g‘lim*, donoligimga e’tibor ber,
aql–idrokimga quloq sol,
2 toki fahm–farosating yo‘qolmasin,
biliming saqlansin.
3 Buzuq ayolning tilidan bol tomadi,
so‘zlari — malhamday yumshoq,
4 ammo oqibati zaharday achchiq,
xanjarday o‘tkirdir.
5 Oyoqlari o‘lim tomon yuradi,
qadamlari o‘liklar diyoriga* yetaklaydi.
6 U hayotga olib boradigan yo‘lga e’tibor bermaydi,
yo‘llari beqaror, o‘zi buni bilmaydi.

7 O‘g‘lim*, menga quloq sol,
so‘zlarimdan chiqma.
8 U ayoldan uzoqroq yur,
uning eshigiga yaqinlashma.
9 Bo‘lmasa, o‘z obro‘yingni begonalarga,

hayotingni yovuzlarga bergan bo‘lasan.
10 Boyligingdan begonalar bahramand bo‘ladi,
mehnat bilan topgan mol–mulking o‘zgalarning uyida bo‘ladi.
11 Umring oxirida,
vujudingu tanangdan asar qolmagach,
faryod qilasan.
12 O‘shanda shunday deysan:
“Men intizom va tanqiddan qanchalik nafratlanar edim–a,
13 na ustozlarimga,
na nasihat berganlarga quloq solibman.
14 Ana oqibat, jamoa orasida
halokat qirg‘og‘iga kelib qoldim.”

15 O‘z sardobangdagi,
o‘z qudug‘ingdagi suvni* ichaver.
16 Buloqlaring tashqarida,
irmoqlaring ko‘chada oqsinmi?!
17 Uni begonalar bilan baham ko‘rma,
faqat o‘zingniki bo‘lsin.
18 Bulog‘ing suvlari muborak bo‘lsin,
ko‘z ochib ko‘rganing bilan quvongin.
19 Jozibali ohu va go‘zal kiyik!
Uning og‘ushi seni qoniqtirsin,
doim uning sevgisi bilan qanoatlangin.
20 Nega endi, o‘g‘lim, begona xotinni ko‘ngling qo‘msaydi?
Nimaga begona ayolning og‘ushini quchasan?
21 Insonning xatti–harakatlari
Egamizning ko‘zi oldidadir.
Egamiz odamning barcha ishlarini kuzatib turadi.
22 Fosiqning ishlari uning o‘zini ushlaydi,
gunohlari uni zanjirband qiladi.
23 U ahmoqligi tufayli yo‘ldan ozadi,
tarbiyasizligi dastidan o‘ladi.

6–BOB

Kafillik va turli illatlarga qarshi ogohlantirish

1 O‘g‘lim*, o‘zgaga kafillik qilib,
begona bilan ahdlashgan bo‘lsang*,
2 o‘z tilingdan ilinib,
so‘zlaring tuzoqqa yetaklagan bo‘lsa,
3 o‘g‘lim, o‘zganing qo‘liga tushib qolibsan,
o‘zingni qutqar, bor, tiz cho‘kib yolvor.
4 O‘zingga uyqu berma,
bir soniya ham dam olma.

5 Ovchidan qochgan ohu kabi,
bedanavoz qo‘lidan qochgan bedanaday o‘zingni qutqar.

6 Ey tanbal, chumolilarga bir qara,
ularning xatti–harakatlarini ko‘rib dono bo‘l.
7 Ularning na rahbari,
na nazoratchisi, na hukmdori bor.
8 Lekin ular yozda oziq to‘plashadi,
o‘rim paytida don–dun yig‘ishadi.
9 Sen–chi, tanbal, qachongacha uxlaysan?!
Qachon o‘rningdan turasan?
10 “Bir oz uxlay, bir mizg‘ib olay,
yonboshlab birpas dam olay”, deysan.
11 Shuning uchun qashshoqlik yo‘lto‘sarday,
muhtojlik qaroqchiday ustingga keladi.

12 Ayyor va nopoklar yaramas so‘zlarni gapirib yuradilar.
13 Ko‘z qisadilar,
oyoq–qo‘llari bilan imo–ishora qiladilar.
14 Yuraklarida doim yovuz niyat qilib,
odamlar orasida janjal chiqaradilar.
15 Shuning uchun to‘satdan ofatga uchraydilar,
shifo topmay to‘satdan halok bo‘ladilar.

16 Olti narsadan Egamiz nafratlanadi,
yetti narsadan U jirkanadi. Bular:
17 manmanlik nigohi, yolg‘onchi til,
begunoh qonni to‘kadigan qo‘llar,
18 yomon niyatli yurak,
yovuzlikka yuguradigan oyoqlar,
19 yolg‘on gapiradigan soxta guvoh,
aka–ukalar orasiga nifoq soluvchilardir.

Zinoga qarshi ogohlantirish

20 O‘g‘lim, otang nasihatlariga quloq sol,
onang o‘gitlarini rad etma,
21 ularni doim yuragingda saqla,
bo‘yningga taqib ol.
22 Yurganingda ular senga yo‘l ko‘rsatadi,
uxlaganingda qo‘riqlaydi,
uyg‘oqligingda senga gapiradi.
23 Chunki amrlar — chiroq,
tanbeh — hayot yo‘li,
pand–nasihatlar nurdir.
24 Ular seni boshqalarning xotinidan,
zinokor ayolning shirin so‘zidan saqlaydi.

25 Yuragingda uning go‘zalligini orzu qilmagin,
ko‘zlariga mahliyo bo‘lma.
26 Fohishaga bittagina non haqi yetarli,
ammo o‘zganing xotini bilan qilingan zino
butun hayotingni barbod qiladi.
27 Qo‘yinga cho‘g‘ solganda kiyimni kuydirmay bo‘ladimi?!
28 Cho‘g‘ ustida yurganda oyoqni kuydirmay bo‘ladimi?!
29 O‘zganing xotini oldiga kirganning ahvoli ham shunday,
begona ayolga tekkan jazosiz qolmaydi.
30 Qorni ochligidan o‘zini to‘ydirish uchun o‘g‘rilik qilsa,
odamlar undan nafratlanmaydi.
31 Lekin qo‘lga tushib qolganda o‘g‘irlangan molining haqini
yetti barobar qilib qaytarishi kerak.
32 Zino qilgan aqlsizdir,
o‘zini o‘zi nobud qiladi.
33 U ko‘p kaltak yeb sharmanda bo‘ladi,
bir umrga badnom bo‘ladi.
34 Chunki rashk erni g‘azablantiradi,
er qasos olganda shafqat qilmaydi.
35 Har qanday hadyani rad etadi,
qancha pora bersang olmaydi.

7–BOB

1 O‘g‘lim*, so‘zlarimni asra,
amrlarimni dilingda saqla.
2 Amrlarimni saqlab yasha,
ta’limotimni ko‘z qorachig‘ingdek asra.
3 Ularni barmog‘ingga bog‘la,
yuraging qa’riga yozib qo‘y.
4 Donolikni singlim,
aql–idrokni qardoshim deb atagin.
5 Ular seni zinokordan,
tilyog‘lama buzuq ayoldan asraydi.

Axloqi buzuq ayol

6 Uyimdagi deraza panjarasi ortidan qaradim,
7 sodda* yoshlarning orasida,
bir aqlsiz yigitni ko‘rib qoldim.
8 Yigit ko‘chadan o‘tib,
zinokor ayolning uyi tomon ketayotgan edi.
9 Oqshom. Kech.
Tun qorong‘i edi.
10 Shunda fohishaga o‘xshab kiyingan,
makkor niyatli ayol uni kutib olgani chiqdi.
11 U shallaqi, o‘jar, hech qachon uyida turmaydi.

12 Bir qarasang koʻchada, bir qarasang maydonda,
yana bir qarasang har xil burchakda turgan boʻladi.
13 U yigitni quchoqlab, oʻpib,
benomuslarcha shunday dedi:
14 “Bugun qurbonlik keltirdim,
va’dalarimni bajardim*.
15 Shuning uchun seni kutib olishga chiqdim,
seni qidirib topdim.
16 Toʻshagimni Misrdan keltirilgan rangli mato bilan bezadim.
17 Mirra*, dolchin va aloedan boʻlgan xushboʻy atirlar sepdim.
18 Qani, yur, tongga qadar kuyov–kelinday rohat qilaylik,
huzur–halovat qilaylik.
19 Erim hozir uyda emas,
uzoq safarga ketgan.
20 Bir hamyon kumush tanga olib ketgan,
oy toʻlmaguncha qaytib kelmaydi.”

21 Koʻp shirin soʻzlar va muloyim gaplar bilan
u yigitni yoʻldan urdi.
22 Yigit oʻsha zahotiyoq, kushxonaga ketayotgan hoʻkizday,
tuzoqqa oyoq qoʻyayotgan kiyikday* uning orqasidan ergashdi.
23 U tuzoqqa kirayotgan qushday,
nayza jigariga tegmaguncha hayotini yoʻqotishini bilmaydi.

24 Oʻgʻillarim, menga quloq solib,
soʻzlarimga e’tibor beringlar.
25 Yuragingiz oʻsha ayolning yoʻliga burilmasin,
uning soʻqmoqlarida adashmang.
26 U koʻplarni halok qildi,
qurbonlari ham koʻp.
27 Uning uyi oʻliklar diyoriga* yetaklovchi yoʻldir,
oʻlimga olib boradi.

8–BOB

Donolikning ulugʻligi

1 Donolik* chorlamaydimi?!
Idrok ovozini baland qilib chaqirmaydimi?!
2 Qir–adirlarda, yoʻl boʻylarida,
chorrahalarda,
3 shahar darvozalarida*,
eshiklar oldida turib jar soladi:
4 “Ey insonlar, sizlarni chaqiryapman,
odamzodga gapirmoqdaman.
5 Soddalar*, fahm–farosatli boʻling,

nodonlar, idrokli bo‘ling.
6 Quloq soling,
men a’lo gaplarni gapiraman, rostini aytaman.
7 Chunki tilim haqiqatni gapiradi,
fosiqlikdan esa nafratlanadi.
8 Hamma so‘zlarim to‘g‘ridir,
ularda na egrilik, na buzuqlik bor.
9 Farosatlilarga ravshan,
bilim oladiganlarga to‘g‘ridir.
10 Kumush o‘rniga nasihatlarimni,
oltin o‘rniga ilm–ma’rifatni tanlang.
11 Chunki donolik ko‘hinurdan a’loroqdir,
hech qanday shodlik U bilan tenglasha olmaydi.
12 Men, Donolik*, aql–idrok bilan yashayman,
bilim va fahm–farosat mendadir.
13 Egamizdan qo‘rqish* yomonlikdan nafratlanish demakdir.
Men mag‘rurlik va manmanlikdan,
yovuzlik va buzuq tildan nafratlanaman.
14 Menda maslahat va haqiqat bor,
men idrokman,
quvvatu kuch ham mendadir.
15 Shohlar men orqali hukm suradilar,
hukmdorlar to‘g‘ri qonunlar chiqaradilar.
16 Men orqali rahbarlar boshqaradilar,
amaldor va barcha odil hakamlar hukm chiqaradilar.
17 Kim meni sevsa o‘shani sevaman,
astoydil izlaganlar meni topadilar.
18 Boylik, shuhrat, bitmas–tuganmas xazina,
farovonlik mendadir.
19 Mening hosilim toza oltindan ham,
a’lo kumushdan ham yaxshiroq.
20 Men to‘g‘ri yo‘ldan,
adolat so‘qmoqlaridan yuraman.
21 Meni sevganlar boylikni meros qilib oladilar,
ularning xazinasini to‘ldiraman.
22 Egamiz yaratish ishlarini boshlamasdan oldin,
meni bunyod qilgan edi.
23 Azalda, eng boshida,
dunyo yaratilmasdan oldin,
U meni tayinlagan edi.
24 Tubsiz dengizu bepoyon ummon,
yo birorta buloq ko‘z ochmay turib,
men dunyoga keltirilganman.
25 Tog‘u tosh, qir–adir barpo bo‘lmasdan oldin
men tavallud topganman.

26 U hali na yer, na dalalarni,
na yerning tuprog‘ini yaratgan edi.
27 Xudo osmonni yaratganda,
bepoyon ummon uzra falakni barpo etganda,
men o‘sha yerda edim.
28 Osmonga bulutlarni joylab,
dengizlarni suv bilan to‘ldirgan chog‘da,
29 U suv toshib ketmasin deb amr berganda,
yerga asos solganda*,
30 men Uning yonida musavvir edim,
qoshida kundan–kunga zavqlanib,
doimo quvonardim.
31 Dunyoda, Uning yerida odamzod bilan xursand bo‘lardim.

32 O‘g‘illarim, menga quloq solinglar,
yo‘limdan yurganlar baxtlidir.
33 Pand–nasihatlarimni tinglab
dono bo‘linglar, uni rad etmanglar.
34 Har kuni ostonamda kutib, eshigimni poylab,
so‘zlarimga quloq soladigan baxtlidir.
35 Chunki meni topgan hayot topadi,
Egamizning marhamatiga sazovor bo‘ladi.
36 Meni ko‘zdan qochirgan o‘ziga zarar yetkazadi,
mendan nafratlangan o‘limni sevadi.”

9–BOB

Donolik va ahmoqlik

1 Donolik* uy qurdi,
uyining yetti ustunini qo‘ydi.
2 Qurbonlik keltirdi,
sharob tayyorlab, dasturxon yozdi.
3 Xizmatkorlarini shaharning eng baland joyiga yuborib,
ular orqali:
4 “Kim sodda* bo‘lsa, bu yoqqa kelsin”, — deb chaqirdi,
aqlsizlarga shunday dedi:
5 “Kelinglar, taomimdan yenglar.
Men tayyorlagan sharobdan ichinglar.
6 G‘aflatdan voz kechinglar, shunda yashaysizlar,
idrok yo‘lidan yuringlar.”

7 Mazax qiluvchiga tanbeh bergan tahqirlanadi,
fosiqning xatosini aytgan haqoratlanadi.
8 Mazax qiluvchiga tanbeh berma,
aks holda, u sendan nafratlanadi.

Donoga tanbeh ber, shunda u seni sevadi.
9 Donoga o‘rgatsang, yanada donoroq bo‘ladi.
Solihni o‘qitsang, bilimini ko‘paytiradi.
10 Egamizdan qo‘rqish* donolikning boshidir*,
Muqaddas Xudoni bilish idrokdir.
11 Chunki donolik tufayli umringga umr qo‘shiladi.
12 Dono bo‘lsang o‘zingga foyda,
mazax qilsang o‘zing jabr tortasan.

13 Ahmoq ayol shallaqi va farosatsizdir,
u hech narsani bilmaydi.
14 Uyining eshigi oldida,
shaharning eng baland joyida o‘tirib,
15 yo‘lida to‘g‘ri yurgan,
yonidan o‘tib ketayotganlarni:
16 “Kimki sodda bo‘lsa, bu yoqqa kelsin”, — deb chaqiradi,
aqlsizlarga shunday deydi:
17 “O‘g‘irlangan suv shirindir,
berkitib yeyilgan non mazali.”
18 Lekin u yerda arvohlar borligini,
uning mehmonlari o‘liklar diyorining* qa’rida ekanligini bilmaydilar.

Sulaymon hikmatlarining to‘plami

(10:1-22:16)

10–BOB

1 Sulaymonning hikmatlari.

Dono farzand otaga shodlik keltiradi,
nodon farzand* esa onaga qayg‘u.
2 Yovuzlik bilan topilgan boylikdan naf yo‘q,
to‘g‘rilik esa o‘limdan qutqaradi.
3 Egamiz solihning och qolishiga yo‘l qo‘ymaydi,
lekin fosiqning xohishini bajo qilmaydi.
4 Dangasa qo‘llar qashshoqlik keltiradi,
tirishqoq qo‘llar esa boylik.
5 Yoz paytida hosil yiqqan — dono o‘g‘il,
o‘rim payti uxlagan esa otasiga uyat keltiradi.
6 Solihning boshida — baraka,
fosiqning tili esa yovuzlik konidir.
7 Solihning xotirasi muborak bo‘ladi,
fosiqning nomi yoddan ko‘tariladi.
8 Yuragida donolik bo‘lgan amrlarni qabul qiladi,
ezma nodon esa halok bo‘ladi.

9 To‘g‘ri yurgan xavf–xatarni bilmaydi,
yo‘ldan og‘gan esa jazo topadi.
10 Ko‘z qisgan qayg‘uga sabab bo‘ladi,
ezma nodon halok bo‘ladi.
11 Solihning tili — hayot bulog‘i,
fosiqning tili — yovuzlik koni.
12 Nafrat janjal qo‘zg‘aydi,
sevgi–muhabbat esa hamma gunohlarni kechiradi.
13 Idroklining so‘zlarida — donolik,
nodonning orqasida esa qamchi.
14 Donolar bilimini orttiradi,
nodonning tili esa halokat keltiradi.
15 Boyning qal’asi — boyligi,
kambag‘alning halokati esa kambag‘alligidadir.
16 Solihning haqi — hayot,
fosiqniki esa jazo.
17 Nasihatga quloq solgan hayot yo‘lidadir,
tanbehni tan olmagan yo‘ldan adashadi.
18 Nafratini yashirgan — yolg‘onchi,
g‘iybat tarqatuvchi ahmoqdir.
19 Gap–so‘z ko‘p bo‘lsa, janjal hech qachon to‘xtamaydi,
tilini tiygan esa donodir.
20 Solihning tili oltin kabidir,
fosiqning qalbi esa hech narsaga arzimaydi.
21 Solihning tili ko‘plarni oziqlantiradi,
nodon esa aqlsizligi tufayli halok bo‘ladi.
22 Egamizning marhamati boylik keltiradi,
Egamiz boylikka g‘am–tashvish qo‘shmaydi*.
23 Ahmoq yomonlik qilishdan,
aqlli esa donolikdan zavqlanadi.
24 Fosiq nimadan qo‘rqsa, o‘shanga duchor bo‘ladi,
solih esa orzusiga yetishadi.
25 Quyundan keyin fosiqlar yo‘q bo‘ladi,
solihlar esa abadiy mustahkamdir.
26 Dangasaga ish buyursang,
u sen uchun tishga qo‘yilgan sirkaday,
ko‘zga kirgan tutunday bo‘ladi.
27 Egamizdan qo‘rqish* umrga umr qo‘shadi,
fosiqning umri esa qisqaradi.
28 Solihning orzusi quvonch keltiradi,
fosiqning niyati esa puchga chiqadi.
29 Egamizning yo‘li solihlar uchun qal’a,
yomonlik qiladiganlar uchun esa halokatdir.
30 Solih hech qachon o‘rnidan qo‘zg‘atilmaydi,
fosiq esa o‘sha yerda yashamaydi.

31 Solihning tili donolik keltiradi,
yomon til esa kesib tashlanadi.
32 Solihning tili marhamat keltiradi,
fosiqning tili esa egrilik.

11–BOB

1 Yolg‘on tarozi Egamiz uchun jirkanchdir,
aniq tarozi toshlari esa Uning quvonchidir.
2 Mag‘rurlik bilan sharmandalik keladi,
donolik esa kamtarlar bilandir.
3 To‘g‘rilarning sofdilligi yo‘l ko‘rsatsa,
xoinlarning ikkiyuzlamachiligi halok qiladi.
4 Qiyomat kunida boylik foyda bermaydi,
solihlik esa o‘limdan saqlaydi.
5 Pokdilning solihligi yo‘lini to‘g‘rilaydi,
fosiq esa fosiqligi tufayli qoqiladi.
6 To‘g‘rining solihligi najot beradi,
sotqin esa yomon niyatlari tufayli tutiladi.
7 Yovuz o‘lsa, orzu–umidlari ham o‘ladi,
fosiqning ham xohish–tilaklari poymol bo‘ladi.
8 Solih g‘am–g‘ussadan qutuladi,
fosiq esa g‘amga duchor bo‘ladi.
9 Imonsiz o‘z tili bilan qo‘shnisini halok qiladi,
solih esa ilm–ma’rifati tufayli najot topadi.
10 Solihning ishi yurishsa, el–yurt quvonadi,
fosiq halok bo‘lsa, tantana bo‘ladi.
11 To‘g‘ri odamlar tufayli shahar gullab–yashnaydi,
fosiqning tilidan esa el–yurt vayron bo‘ladi.
12 Qo‘shnisini kamsitgan aqlsizdir,
idrokli sukut saqlaydi.
13 G‘iybatchi sirlarni ochadi,
sodiq esa sir saqlaydi.
14 Yo‘l–yo‘riq ko‘rsatuvchisi bo‘lmagan xalq halok bo‘ladi,
maslahatchilar ko‘p bo‘lsa, g‘alaba keladi.
15 Begonaga kafillik qilgan ko‘p jabr ko‘radi,
kafil bo‘lishdan nafratlanadigan esa tinchgina yuradi.
16 Mehribon xotin izzat–hurmat topadi,
zo‘ravon esa boylikdan boshqa hech narsaga erishmaydi.
17 Shafqatli inson o‘z joniga manfaat keltiradi,
bag‘ri tosh esa o‘ziga zarar yetkazadi.
18 Xudoning yo‘lidan yurganlar haqiqiy mukofotni,
fosiqlar esa yolg‘on mukofotni oladilar.
19 Solihlikni ko‘zlagan inson hayotga,
yomonlikni ko‘zlagan esa o‘z o‘limiga erishadi.

20 Egri yurak Egamizga jirkanch,
poklarning ishlari esa Uning quvonchidir.
21 Fosiq aslo jazosiz qolmaydi,
solihning esa avlodlari ham najot topadilar.
22 Chiroyli, ammo farosatsiz ayol,
burniga tilla sirg‘a taqqan cho‘chqa misol.
23 Solihning xohishi faqat ezgulik,
fosiqning kutganlari esa qahr–g‘azabdir.
24 Ba’zilarning qo‘li ochiq, ammo boyligi ko‘payaveradi.
Ba’zilar haddan tashqari tejamkor, ammo qashshoqlashaveradi.
25 Saxiyning biri ikki bo‘ladi,
boshqalarga yaxshilik qilganning o‘zi ham yaxshilik ko‘radi.
26 G‘allasini qizg‘anganni xalq qarg‘aydi,
sotganlarga esa baraka yog‘iladi.
27 Ezgulikka intilgan iltifot topadi,
yomonlik qidirganga esa yomonlik keladi.
28 Boyligiga ishongan xonavayron bo‘ladi,
solih esa barg kabi yashnaydi.
29 O‘z oilasiga g‘am–tashvish keltiradiganlar meros olmaydi,
nodonlar donoga qul bo‘ladi.
30 Solihlarning mahsuli — hayot daraxti,
oqilu donolar odamlarning yuragidan joy oladi.
31 Dunyoda solih qancha taqdirlansa,
fosiq bilan gunohkor undan ham ko‘proq jazolanadi.

12–BOB

1 Nasihatni sevgan ilm–ma’rifatni sevadi,
tanbehdan nafratlanadigan esa ahmoqdir.
2 Yaxshi odam Egamizning marhamatiga sazovor bo‘ladi,
niyati buzuqni esa U jazoga hukm etadi.
3 Inson yovuzlik bilan kamol topmaydi,
solih hech qachon o‘rnidan qo‘zg‘atilmaydi.
4 Yaxshi xotin erining boshidagi tojidir,
erini uyaltiradigan xotin boshga balodir.
5 Solihning fikri–zikri — adolat,
fosiqning maslahati esa yolg‘ondir.
6 Fosiqning so‘zi qonga tashna,
to‘g‘rining tili esa qutqaradi.
7 Fosiq halokatga uchrab yo‘q bo‘ladi,
solihning uyi esa mustahkam turadi.
8 Insonni aql–idrokiga qarab ulug‘laydilar,
egri odam esa nafratga duchor bo‘ladi.
9 O‘zini katta tutib nonga zor bo‘lgandan ko‘ra,
oddiy bo‘lib xizmatkor bo‘lish yaxshiroq.

10 Solih hayvonga ham mehribonlik qiladi,
fosiqning rahmdilligi ham zolimlikdir.
11 Yerga ishlov bergan to‘yib non yeydi,
bekor narsani ko‘zlagan esa aqlsizdir.
12 Fosiq yovuzlik to‘riga ilintiray deydi,
solihning ildizi yashnaydi.
13 Fosiq o‘z tilidan ilinadi,
solih esa g‘amdan forig‘ bo‘ladi.
14 Odam so‘zlari tufayli yaxshi narsaga erishadi,
mehnati uni taqdirlaydi.
15 Nodon o‘z yo‘lini to‘g‘ri deb o‘ylaydi,
dono esa maslahatga quloq soladi.
16 Nodon g‘azabini darhol bildiradi,
aqli raso esa haqoratlanganini berkitadi.
17 To‘g‘ri gapiradigan haqiqatni aytadi,
soxta guvoh yolg‘on gapiradi.
18 O‘ylamasdan aytilgan so‘z qilichday jarohatlaydi,
dononing gaplari esa shifo beradi.
19 Rostgo‘y lablar abadiydir,
yolg‘on til esa bir lahzalikdir.
20 Yomon niyat qiladiganning yuragida yolg‘on,
tinchlik o‘rnatuvchining yuragida esa quvonch bor.
21 Solihga hech qanday zarar tegmaydi,
fosiq esa g‘am–g‘ussadan qutulmaydi.
22 Yolg‘onchi til Egamizga jirkanch,
to‘g‘rilik bilan ish qiladiganlar esa Uning sevinchidir.
23 Aqlli bilimini ko‘z–ko‘z qilmaydi,
nodon o‘z nodonligini oshkor qiladi.
24 Tirishqoq hukm suradi,
dangasa esa qul bo‘ladi.
25 Yurakdagi qayg‘u–alam odamni ezadi,
shirin so‘z esa yurakni shod etadi.
26 Solih o‘zgalarga yo‘l ko‘rsatadi*,
fosiq esa yo‘ldan adashtiradi.
27 Dangasa o‘ljasini pishirishga ham erinadi,
g‘ayratli esa qimmatbaho boylikka ega bo‘ladi*.
28 Solihlik yo‘li hayotga yetaklaydi,
bu yo‘lda o‘lim yo‘qdir.

13–BOB

1 Aqlli farzand* otasining nasihatlarini qabul qiladi,
mazax qiluvchi esa tanbehga quloq solmaydi.
2 Yaxshi odam so‘zlari bilan yaxshilikka erishadi,
xoin esa zo‘ravonlikka.

3 Tilini tiygan jonini asraydi,
tiliga erk bergan esa halokatga uchraydi.
4 Dangasaning koʻngli xohlaydi–yu,
ammo hech narsaga erisha olmaydi,
tirishqoq esa orzusiga yetishadi.
5 Solih yolgʻondan nafratlanadi,
fosiq esa uyatli va sharmandali ishlar qiladi.
6 Solihlik toʻgʻri yuradiganni himoya qiladi,
fosiqlik esa gunohkorni halok qiladi.
7 Shunday odam bor, hech narsasi yoʻgʻ–u, oʻzini boy koʻrsatadi.
Yana shunday odam bor, boyligi koʻp–u, oʻzini qashshoq koʻrsatadi.
8 Jonning haqi — uning boyligi,
kambagʻal esa doʻq–poʻpisadan qoʻrqmaydi.
9 Solihlarning chirogʻi doim charogʻon,
fosiqniki esa oʻchib qoladi.
10 Magʻrurlikdan faqat urush chiqadi,
nasihatga quloq solgan odamda esa donolik bor.
11 Hiyla bilan topilgan davlat yoʻqoladi,
mehnat bilan topilgani esa koʻpayadi.
12 Roʻyobga chiqmagan umid yurakni ezadi,
ushalgan orzu esa hayot daraxti kabidir.
13 Pand–nasihatlardan nafratlangan
oʻziga halokat keltiradi,
amrga quloq solgan esa taqdirlanadi.
14 Dononing taʼlimoti hayot manbaidir,
u odamni oʻlim tuzogʻidan asraydi.
15 Idrokli inson marhamatga erishadi,
xoinning yoʻli esa mashaqqatlidir*.
16 Zukko odam aql bilan ish qiladi,
aqlsiz esa ahmoqligini koʻrsatadi.
17 Yomon xabarchi kulfat olib keladi,
sodiq xabarchi esa yurakka shifo keltiradi.
18 Nasihatga quloq solmaganlarga qashshoqlik va uyat keladi,
tanbehga quloq solganlar esa hurmat va izzat topadi.
19 Amalga oshgan tilak jonga rohat beradi,
nodon odam yomonlikdan ayrilishni rad etadi.
20 Donoga hamroh boʻlgan dono boʻladi,
ahmoqqa yoʻldosh boʻlgan esa halok boʻladi.
21 Baxtsizlik gunohkorning ketidan quvib yuradi,
solihning mukofoti esa baxt–saodatdir.
22 Yaxshi odam bolalarining bolalariga ham meros qoldiradi,
fosiqning boyligi esa solihga nasib etadi.
23 Kambagʻalning dalasida gʻalla moʻl,
lekin adolatsizlik tufayli vayron boʻladi.
24 Kaltakni oʻgʻlidan ayagan odam uni yomon koʻradi,

oʻgʻlini sevgan esa yoshlikdan tartib–intizomga oʻrgatadi.
25 Solih qorni toʻyib ovqat yeydi,
fosiq esa och qoladi.

14–BOB

1 Dono xotin oʻz oilasini mustahkamlaydi,
nodon xotin esa oilasini oʻzi buzadi.
2 Toʻgʻri yoʻldan yuradigan Egamizdan qoʻrqadi*,
egri yoʻldan yuradigan esa Uni rad etadi.
3 Ahmoqning soʻzlari oʻziga kaltak keltiradi,
dononiki esa uni himoya qiladi.
4 Hoʻkiz boʻlmasa oxur toza,
lekin hoʻkizning kuchi tufayli hosil koʻp boʻladi.
5 Sodiq guvoh yolgʻon gapirmaydi,
soxta guvoh yolgʻon gapirishdan toʻxtamaydi.
6 Mazax qiluvchi donolikni qidiradi, ammo topolmaydi,
idrokliga esa bilim olish oson.
7 Aqlsizdan uzoqlash,
chunki undan maʼnoli soʻz chiqmaydi.
8 Ziyrakning donoligi oʻz yoʻlini bilishidadir,
aqlsizning ahmoqligi esa uni yoʻldan adashtiradi.
9 Ahmoq odam ayb qurbonligi ustidan kuladi*,
toʻgʻri odam esa Xudoning marhamatiga sazovor boʻladi.
10 Yurak oʻz dardini oʻzi biladi,
uning shodligini ham hech kim toʻliq tushunmaydi.
11 Fosiqlarning uyi xaroba boʻladi,
solihlarning xonadoni esa gullab–yashnaydi.
12 Shunday yoʻl borki, insonga toʻgʻri boʻlib koʻrinadi,
ammo oxiri oʻlimga olib boradi.
13 Kulsa ham yurakda qaygʻu bor,
xursandchilikning oxiri gʻamdir.
14 Yuragi qingʻir oʻz egriligidan,
yaxshi odam esa toʻgʻriligidan mamnun.
15 Sodda* har bir soʻzga ishonaveradi,
aqlli esa qadamini oʻylab bosadi.
16 Dono qoʻrqib yomonlikdan uzoqlashadi,
nodon esa jahli tez va beparvo*.
17 Badjahl aqlsizlik qiladi,
badniyat nafratga uchraydi.
18 Soddalarning nasibasi — nodonlik,
aqllilarning toji esa ilmu maʼrifatdir.
19 Yomonlar yaxshilarning oldida,
fosiqlar solihlarning darvozasida taʼzim qiladi.
20 Kambagʻaldan qoʻshnilari ham nafratlanadi,

boyning esa oʻrtoqlari koʻp.
21 Qoʻshnisini xor qilgan — gunohkor,
muhtojga marhamat qilgan esa baxtlidir.
22 Niyati buzuqlar yoʻldan adashadi.
Yaxshi niyatlilar esa sevgi va sadoqatga sazovor boʻladi.
23 Har bir mehnatdan foyda bor,
quruq gap esa kambagʻallik keltiradi.
24 Oqillarning toji — donoligi,
aqlsizning nodonligi esa ahmoqligidir.
25 Rostgoʻy guvoh jonni qutqarsa,
yolgʻonchi guvoh aldaydi.
26 Egamizdan qoʻrqish — mustahkam qal'a,
farzandlariga ham Oʻzi panohdir.
27 Egamizdan qoʻrqish hayot manbaidir,
bunday xislat odamni oʻlim tuzogʻidan asraydi.
28 Xalqning koʻpligi — shohning shuhrati,
kamligi esa hokimning halokatidir.
29 Sabr–toqatli odam aql–idroklidir,
jahldorlik ahmoqlikni bildiradi.
30 Xotirjam yurak tanaga hayot baxsh etadi,
hasadgoʻylik esa suyaklarni chiritadi.
31 Kambagʻalga zulm qilgan Yaratuvchini tahqirlagan boʻladi,
muhtojga yordam bergan esa Xudoni ulugʻlagan boʻladi.
32 Fosiq oʻz qilmishlari tufayli halokatga uchraydi,
solih esa oʻlimda ham panoh topadi.
33 Donolik oqilning qalbida yashaydi,
nodonlar orasida ham oʻzini bildiradi*.
34 Solihlik xalqni yuksaltirsa,
gunoh sharmanda qiladi.
35 Donolik bilan ish qiladigan qul shohning marhamatiga sazovordir,
sharmandali ish qiladigan esa uning gʻazabiga uchraydi.

15–BOB

1 Yumshoq javob gʻazabni qaytaradi,
qattiq soʻz esa jahl chiqaradi.
2 Donolar tilidan ilm–hikmat yogʻilsa,
nodonlardan ahmoqlik chiqadi.
3 Egamizning koʻzlari hamma joyda,
U yaxshiyu yomonni koʻrib turadi.
4 Shirin soʻz — hayot daraxti,
buzuq til — jonning halokati.
5 Otasining nasihatini ahmoq rad etadi,
tanbehga quloq solgan esa idroklidir.
6 Solihning uyida boylik koʻp,

fosiqning hosili esa tashvish keltiradi.
7 Dononing tili bilim tarqatadi,
ahmoqning qalbi esa unday emas.
8 Fosiqning qurbonligi Egamizga jirkanchdir,
to‘g‘rining ibodati esa Uning quvonchi.
9 Fosiqning ishlari Egamizga jirkanchdir,
solihlikka intilganni esa U sevadi.
10 To‘g‘ri yo‘lni tashlab ketgan qattiq jazo oladi,
tanbehdan nafratlangan o‘ladi.
11 Hatto O‘lim* va Halokat* ham Egamiz nigohi ostida ekan,
odamzodning qalbi Unga hech narsa emas.
12 Masxara qiluvchi tanbeh berganlarni yoqtirmaydi,
u donolar oldiga ham bormaydi.
13 Yurak shod bo‘lsa, chehra ochiq,
g‘amgin bo‘lsa, ruh tushkundir.
14 Zakovatli yurak ilm qidiradi,
aqlsizning og‘zi ahmoqlik izlaydi.
15 Qiynalganlarga har kun tashvish,
lekin yuragida shodlik bo‘lsa, doimo bayram.
16 Ko‘p boylikka ega bo‘lib vahima bilan yashagandan ko‘ra,
Egamizdan qo‘rqib* ozgina boylik bilan yashash yaxshiroq.
17 Go‘sht yeb nafrat bilan yashashdan,
sabzavot yeb sevgi bilan yashagan afzalroq.
18 Badjahl janjal chiqaradi,
jahlni tiyadigan esa tinchlantiradi.
19 Dangasaning yo‘li tikanli chetan devor kabi,
to‘g‘rining so‘qmog‘i esa katta ravon yo‘ldir.
20 Aqlli farzand* otasini quvontiradi,
aqlsiz esa onasini xor qiladi.
21 Ahmoqlik vijdonsizga quvonchdir,
aqlli esa to‘g‘ri yuradi.
22 Maslahat bo‘lmagan joyda ish yurishmaydi,
maslahatchi ko‘p bo‘lsa, muvaffaqiyatli bo‘ladi.
23 Odam yaxshi javobi tufayli quvonadi,
o‘z vaqtida aytilgan so‘z qanchalik yaxshi.
24 Donoga tepadagi hayot so‘qmog‘i
pastdagi o‘liklar diyoridan uzoqlashish uchundir.
25 Egamiz takabburning uyini vayron qiladi,
bevaning mol–mulkini saqlaydi.
26 Fosiqning niyatlari Egamizga jirkanch,
yoqimli so‘zlar esa pokdir.
27 Ochko‘z o‘z uyiga tashvish keltiradi,
poradan nafratlanadigan esa yashaydi.
28 Solih o‘ylab javob beradi,
fosiqning og‘zidan esa yomonlik chiqaveradi.

29 Egamiz fosiqlardan uzoqda,
lekin solihlarning ibodatini eshitadi.
30 Ko‘zdagi nur ko‘ngilni xushnud etadi,
xushxabar tan–jonga oziq beradi.
31 Hayotbaxsh nasihatga quloq solgan
donolarning orasida bo‘ladi.
32 Nasihatni rad qilgan o‘z jonini xor qiladi,
tanbehga quloq solgan esa idrokli bo‘ladi.
33 Egamizdan qo‘rqish donolikni o‘rgatadi,
kamtarlik izzatu ikromga sazovor qiladi.

16–BOB

1 Rejalar odamning yuragida,
tildagi javob esa Egamizdan.
2 Odamning qilmishlari uning nazarida to‘g‘ri,
lekin Egamiz yurakning pokligini o‘lchaydi.
3 Ishlaringni Egamizga topshir,
shunda rejalaring mustahkam bo‘ladi.
4 Hamma narsani Egamiz O‘z maqsadi bilan yaratgan,
hatto fosiqlarning ham qismatini belgilab qo‘ygan.
5 Barcha takabburlar Egamizga jirkanch,
ular jazosiz qolmaydilar.
6 Sevgi va sadoqat tufayli gunoh kechiriladi,
Egamizdan qo‘rqish* yomonlikdan uzoqlashtiradi.
7 Egamizga insonning yo‘llari ma’qul kelganda,
dushmanlari bilan ham yarashtiradi.
8 Adolatsiz kelgan ko‘p daromaddan,
halol mehnat bilan topilgan ozginasi yaxshiroq.
9 Odam yuragida niyat qiladi,
uning qadamini esa Egamiz boshqaradi.
10 Xudoning so‘zlari shohning tilida,
hukm qilganda xato qilmaydi.
11 To‘g‘ri taroziyu pallalar Egamiznikidir,
tarozi toshlarini ham Xudo yaratgan.
12 Shohning yomonlik qilishi qabihlikdir*,
chunki uning taxti adolat tufayli mustahkam.
13 To‘g‘ri so‘z shohning quvonchidir,
u rostgo‘ylarni yaxshi ko‘radi.
14 Shohning g‘azabi o‘lim darakchisidir,
dono uni tinchlantiradi.
15 Shoh yuzidagi tabassum hayotdan nishona,
uning marhamati yomg‘ir keltiradigan bulut kabidir.
16 Dono bo‘lish — oltindan,
idrok topish esa kumushdan ham yaxshiroqdir.

17 To‘g‘rining yo‘li yomonlikdan uzoqlashtiradi,
qadamini bilib bosgan odam o‘z jonini asraydi.
18 Mag‘rurlikning ortidan halokat keladi,
takabburlikdan so‘ng esa odam qoqiladi.
19 Takabburlar bilan o‘lja bo‘lishgandan ko‘ra,
kamtarin bo‘lib kambag‘allar orasida yashash yaxshiroq.
20 Gapga tushunadigan yaxshilik topadi,
Egamizga umid bog‘lagan baxtli bo‘ladi.
21 Qalbida donolik bo‘lgan farosatli deb ataladi,
shirinsuxanlik aql–idrokni ko‘paytiradi.
22 Idrok o‘zining sohibi uchun hayot bulog‘i,
ahmoqlik esa ahmoqqa jazodir.
23 Dononing yuragi tiliga idrok beradi,
so‘zlarini ishonchli qiladi.
24 Yoqimli so‘z asal kabidir,
jonga rohat, suyaklarga malhamdir.
25 Shunday yo‘l borki, insonga to‘g‘ri bo‘lib ko‘rinadi,
ammo oxiri o‘limga olib boradi.
26 Mehnat qiladigan odam o‘zi uchun ishlaydi,
chunki och qorni uni undaydi.
27 Yaramas odam yomonlikni qo‘zg‘aydi,
so‘zlari kuydiradigan olov kabidir.
28 Makkor janjal chiqaradi,
g‘iybatchi esa yaqin do‘stlarni ajratadi.
29 Yovuz o‘zgani aldab, yomon yo‘lga boshlaydi.
30 Ko‘zini qisgan — yomon niyatda,
labini tishlagan esa yovuzlik qilgan.
31 Oqargan sochlar — sharofat toji,
solihlik yo‘lida yurgan unga erishadi.
32 Jahlini tiygan — qudratlidan,
o‘zini tuta biladigan esa shaharni yenggandan yaxshiroq.
33 Qur’a tashlanadi*,
ammo barcha qaror Egamizdandir.

17–BOB

1 Dasturxoni to‘la janjalli uydan,
bir tishlam qattiq noni bor tinch xonadon yaxshiroq.
2 Sharmandali ish qiladigan o‘g‘il ustidan farosatli qul hukmronlik qiladi,
u xo‘jayinining o‘g‘illari qatori merosga sherik bo‘ladi.
3 Kumush va oltin olovda sinaladi,
odamlarning qalbini esa Egamiz sinaydi.
4 Fosiqlar yovuz odamlarning gapiga kiradi,
yolg‘onchilar esa g‘iybatga quloq soladi.
5 Kambag‘alni mazax qilgan odam ularni Yaratganni tahqirlaydi,

birovning baxtsizligidan quvongan jazosiz qolmaydi.
6 Nabiralar — keksalarning toju taxti,
otalar o‘g‘illarning shon–shuhratidir.
7 Yaxshi so‘z nodonga yarashmagandek,
yolg‘on ham ulug‘sifat odamga aslo to‘g‘ri kelmaydi.
8 O‘z egasining nazarida pora sehrli qimmatbaho tosh,
go‘yo hamma yerda omad keltiradi.
9 Gunohni kechirgan do‘stlikni saqlaydi,
uni kavlashtirgan esa do‘stni uzoqlashtiradi.
10 Donoga berilgan bitta tanbeh
nodonning boshida singan yuzta kaltakdan ta’sirliroq.
11 Fosiq faqat g‘alayon payida bo‘ladi,
shuning uchun unga yovuz elchi yuboriladi.
12 Tentakning ahmoqligiga yo‘liqqandan ko‘ra,
bolalaridan ayrilgan ona ayiqqa duch kelgan yaxshiroq.
13 Yaxshilikka yomonlik qilganning xonadonidan
yomonlik arimaydi.
14 Janjalning boshlanishi — suv urib ketishiga o‘xshaydi,
janjal chiqmasdan uni to‘xtat.
15 Fosiqni oqlash, solihni ayblash —
ikkovi ham Egamizga jirkanchdir.
16 Bu nima?!
Nodonning qo‘lida boylik bor,
“Donolik sotib olay”, — deydi, lekin unda aql yo‘q.
17 Haqiqiy do‘st har doim sevadi,
aka–ukalar ham og‘ir kun uchun tug‘ilgan.
18 Qo‘l tashlab birovga kafillik qiladigan aqlsizdir*.
19 Gunohni yaxshi ko‘rgan urush–janjalni sevar,
o‘ziga bino qo‘ygan* halokat qidirar.
20 Yuragi makkor odam yaxshilikka erishmaydi,
egri til kulfatga duchor bo‘ladi.
21 Nodon farzand ko‘rgan qayg‘u chekadi,
ahmoqning otasi shodlik nimaligini bilmaydi.
22 Shod yurak — shifobaxsh dori,
g‘am–kulfat esa jonning egovidir.
23 Fosiq qo‘ynidan pora olib
adolat yo‘lini o‘zgartiradi.
24 Fahm–farosatli inson donolikka qaraydi,
nodonning ko‘zi esa dunyoning narigi chetida.
25 Ahmoq farzand* — otasiga qayg‘u,
uni tuqqan onaga g‘amdir.
26 Solihni jazolash,
amaldorni odilligi uchun koyish yaxshi emas.
27 Kam gapirgan — dono,
og‘ir, vazmin odam idroklidir.

28 Hatto ahmoq ham indamay o‘tirganda dono bo‘lib ko‘rinadi,
tilini tiyib turgan farosatli hisoblanadi.

18–BOB

1 Boshqalardan ajralgan o‘z istagini qondirishni xohlaydi,
u hamma dono nasihatga qarshi chiqadi.
2 Nodon aql–idrokni yoqtirmaydi,
faqat o‘zini ko‘rsatadi.
3 Fosiqlik dastidan sharmandalik keladi,
hurmatsizlik esa uyat keltiradi.
4 Dono so‘zlar chuqur suvlarday tuganmasdir,
donolik bulog‘i oshib–toshgan irmoqdir.
5 Fosiqning tarafini olish,
hukmda solihni ayblash yaxshi emas.
6 Ahmoqning tili janjal chiqaradi,
so‘zlari esa kaltak keltiradi.
7 Ahmoqning tili o‘ziga halokat,
so‘zlari joniga tuzoqdir.
8 G‘iybatchining so‘zi shirin ovqat kabidir,
odamning butun a’zoyi badaniga singib ketadi.
9 Ishda dangasa bo‘lgan odam buzg‘unchiga og‘aynidir.
10 Egamizning nomi mustahkam qal’adir,
solih u yerga borib eson–omon bo‘ladi.
11 Boyning boyligi qal’asidir,
uning nazarida shaharning baland devori kabidir.
12 Takabburlik halokatga olib boradi,
kamtarlik esa izzatu ikromga sazovor qiladi.
13 Oxirigacha tinglamay javob bergan ahmoqdir,
u sharmanda bo‘ladi.
14 Odamning ruhi kasallikka chiday oladi,
lekin tushkun ruhga kim toqat qila oladi?!
15 Aqllining qalbi bilim oladi,
dono ilmu ma’rifatga intiladi.
16 Sovg‘a egasiga hamma eshiklarni ochadi,
katta odam oldiga olib boradi.
17 Birinchi gapirgan odam
boshqasi kelib tekshirmaguncha, haq ko‘rinadi.
18 Qur’a* janjalni to‘xtatadi,
kuchli raqiblarni ham ajratadi.
19 Xafa bo‘lgan birodarga yaqinlashish
kuchli shaharni olishdan ham qiyin,
o‘rtadagi janjal qal’aning qulfiga o‘xshaydi.
20 Odamning qorni og‘zining mahsuli bilan to‘yadi,
tilining samarasi bilan qoniqadi.

21 O‘lim ham, hayot ham tilning hukmidadir,
birisini sevgan mevasini yeydi.
22 Xotin topgan baxt topib,
Egamizning marhamatiga sazovor bo‘ladi.
23 Kambag‘al iltijo bilan gapiradi,
boy esa qo‘pol javob beradi.
24 Shunday do‘st borki, u halokat keltiradi,
do‘st borki, u tug‘ishgandan ham yaqinroqdir.

19–BOB

1 To‘g‘ri yuradigan kambag‘al
egri tilli ahmoqdan yaxshiroq.
2 Bilimsiz istak yaxshi emas,
shoshqaloqlar ham qoqiladi.
3 Nodonning nodonligi hayotini buzadi–yu,
Egamizdan jahli chiqadi.
4 Boylik do‘stlar ustiga do‘st keltiradi,
kambag‘al esa do‘stidan ham ayriladi.
5 Soxta guvoh jazosiz qolmaydi,
yolg‘on gapiruvchi ham qochib qutulmaydi.
6 A’yonlarning marhamatini istaydigan ko‘p,
sovg‘a beruvchiga hamma do‘stdir.
7 Kambag‘aldan hamma aka–ukalari nafratlanadi,
do‘stlari ham uzoqlashadi,
qidirganda ularning izi ham yo‘q.
8 Donolikka erishgan o‘z jonini sevadi,
farosatli kishi yaxshilik topadi.
9 Soxta guvoh jazosiz qolmaydi,
yolg‘onchi halok bo‘ladi.
10 Hashamatli yashash ahmoqqa yarashmaganidek,
xo‘jayin ustidan hokimlik qilish ham
qulga to‘g‘ri kelmaydi.
11 Odamning aqli jahlini tiyadi,
gunohni kechirish unga shuhrat keltiradi.
12 Shohning g‘azabi sherning o‘kirishiga o‘xshaydi,
muruvvati esa maysadagi shabnam kabidir.
13 Nodon farzand otasiga tashvish keltiradi,
xotinning janjali beto‘xtov tomadigan chakkadaydir.
14 Uy va boylik — otadan meros,
farosatli xotin esa Egamizdandir.
15 Dangasalik odamni uyquchi qiladi,
yalqov odam och qoladi.
16 Amrlarga amal qilgan o‘z jonini asraydi,
o‘z hayotini xor qilgan esa o‘ladi.

17 Kambag‘alga rahm qilish — Egamizga qarz berishday,
U yaxshilikni qaytaradi.
18 Umid bor ekan, farzandingni* tarbiya qil,
buzilib, nobud bo‘lishiga yo‘l qo‘yma.
19 Jahldor jazosini oladi,
uni bir qutqarsang yana qutqarishingga to‘g‘ri keladi.
20 Nasihatga quloq sol, pand–o‘gitni qabul qil,
shunda umring bo‘yi oqil bo‘lasan.
21 Insonning yuragida niyat ko‘p,
lekin faqat Egamizning aytgani amalga oshadi.
22 Insonning istagi — sadoqatli sevgi,
kambag‘al odam yolg‘onchidan yaxshiroqdir.
23 Egamizdan qo‘rqish* hayotga eltadi,
odam huzur–halovatda yashab tashvishga uchramaydi.
24 Dangasa qo‘lini kosaga cho‘zadi–yu,
og‘ziga olib kelishga erinadi.
25 Mazax qiluvchining ta’zirini ber!
Shunda sodda* odamlarga aql kiradi.
Farosatliga tanbeh ber!
Shunda uning bilimi oshadi.
26 Otasiga zo‘ravonlik qilib, onasini haydagan o‘g‘il
uyat va sharmandalik keltiradi.
27 Ey o‘g‘lim*, agar nasihatga quloq tutmasang,
ilm–ma’rifatdan yuz o‘girgan bo‘lasan.
28 Makkor guvoh adolat ustidan kuladi,
fosiqning og‘zi yovuzlikni o‘ziga oladi.
29 Mazax qiluvchilarga hukm,
nodonlarga kaltak tayyordir.

20–BOB

1 Sharob — mazaxchi, aroq — janjalkash,
ularga aldanganlar nodondir.
2 Shohning g‘azabi — sherning o‘kirishiday,
uning jahlini chiqargan jonidan mahrum bo‘ladi.
3 Janjaldan o‘zini tortish — insonning hurmati,
ahmoq esa janjalga aralashadi.
4 Dangasa kuzda* yer haydamaydi,
o‘rim payti esa qidirib hech narsa topolmaydi.
5 Insonning fikrlari — chuqur suv kabidir,
fahmli odam ularni tashqariga chiqara oladi.
6 Ko‘pchilik o‘zini sodiq deb aytadi,
haqiqatan ham sadoqatli bo‘lganni topib ko‘r–chi!
7 Solih halol yashaydi,
uning bolalari naqadar baxtlidir!

8 Hukmronlik qilayotgan shoh
o‘z ko‘zi bilan barcha yomonliklarni ajratadi.
9 “Qalbimni tozaladim, gunohimdan xoliman”, deb
kim ayta oladi?!
10 Ikki turli tarozi toshi va noto‘g‘ri o‘lchov —
ikkovi ham Egamizga jirkanchdir.
11 Hatto yosh bolani ham xulqidan,
to‘g‘riligini va pokligini ishlaridan bilsa bo‘ladi.
12 Eshitadigan quloq, ko‘radigan ko‘z —
ikkovini ham Egamiz yaratgan.
13 Uyquni yaxshi ko‘rma,
bo‘lmasa kambag‘al bo‘lasan,
ko‘zlaringni och, qorning to‘yadi.
14 Xaridor: “Yaxshi emas, yaxshi emas!” deydi–yu,
nariroqqa borib maqtanadi.
15 Oltin bor, yoqut toshlar ham ko‘p,
biroq eng qimmatbaho narsa — bilimli til.
16 Begonaga kafillik qilganning* to‘nini yechib ol,
ha, bunday aqlsiz odamdan kiyimini garov qilib ol.
17 Nohaqlik bilan topilgan non shirin,
ammo keyin og‘iz tuproq bilan to‘ladi.
18 Maslahat bilan reja tuz,
aqlli yo‘l–yo‘riq bilan urush olib bor.
19 Chaqimchi sirlarni ochadi,
og‘zi bo‘sh odam bilan aloqada bo‘lma.
20 Kim ota–onasini la’natlasa,
uning chirog‘i zulmatda o‘chib qoladi.
21 Boshida shoshilib olingan meros
oqibatda baraka keltirmaydi.
22 Yovuzlik uchun qasos olaman demagin,
Egamizga umid bog‘lab kutgin,
U seni qutqaradi.
23 Ikki xil tarozi toshi Egamizga jirkanchdir,
yolg‘on tarozi ham yaxshi emas.
24 Insonning qadami — Egamizdan,
shunday ekan, u o‘z yo‘lini qanday tushunsin?!
25 O‘ylamasdan Xudoga va’da bergan kishi,
ahd qilgandan keyin ikkilangan odam tuzoqdadir.
26 Dono shoh yovuzlarni ajratib,
ularning ustidan tegirmon toshi yurgizadi.
27 Odamning ruhi — Egamizning chirog‘i,
vujudning barcha chuqurliklarini tekshirib turadi.
28 Sevgi va sadoqat shohni asraydi,
o‘sha inoyat tufayli uning taxti mustahkamdir.
29 Quvvat yigit kishining g‘ururidir,

oqargan sochlar esa keksaning shuhratidir.
30 Qamchining jarohati yomonlikka davodir,
kaltak zarbi vujudning eng chuqur joylarini tozalaydi.

21–BOB

1 Shohning yuragi Egamizning qo‘lida,
uni irmoqday xohlagan tomonga buradi.
2 Odamning qilmishlari o‘zining nazarida to‘g‘ri,
ammo Egamiz yuraklarni sinaydi.
3 Adolatu haqiqatga amal qilish
Egamizga qurbonlikdan afzalroqdir.
4 Takabbur ko‘zlar va mag‘rur yurak chiroq kabi fosiqning gunohini ko‘rsatadi.
5 Mehnatkashning rejasi faqat mo‘l–ko‘lchilik keltiradi,
shoshqaloq kambag‘allikka duchor bo‘ladi.
6 Yolg‘on bilan boylik topadiganlar
chiqib ketadigan bug‘ kabidir,
ular o‘z o‘limini izlaydi.
7 Yovuzning zo‘ravonligi o‘z boshiga yetadi,
chunki u adolat bilan ish qilishni rad etadi.
8 Gunohkorning yo‘li — egri,
sofdilning ishi — to‘g‘ri.
9 Urishqoq xotin bilan keng uyda yashagandan ko‘ra,
loy tomning bir chetida yashagan yaxshiroq.
10 Yovuzning ko‘ngli yomonlikka tashna,
qo‘shnisi undan rahm–shafqat topmaydi.
11 Mazax qiluvchi jazolansa, sodda* odamlar dono bo‘ladi,
donoga yo‘l–yo‘riq berilsa, bilimi oshadi.
12 Xudo odildir, fosiqning uyini U kuzatib turadi,
fosiqni halokatga mubtalo qiladi.
13 Kambag‘alning faryodiga kim quloq solmasa,
o‘zi faryod qilganda ham hech kim javob bermaydi.
14 Yashirincha berilgan sovg‘a jahlni yumshatadi,
yeng ichidagi pora g‘azabdan tushiradi.
15 Adolatga amal qilish solihlarga sevinch,
fosiqlarga esa qo‘rqinchdir.
16 Aql–idrok yo‘lidan chiqqanlar o‘liklar orasidadir.
17 Ziyofatni sevgan qashshoqlashadi,
sharob bilan moyni yaxshi ko‘rgan odam boy bo‘lmaydi.
18 Solihga atalgan yovuzlik fosiqning boshiga tushadi,
to‘g‘ri odamning o‘rniga xoin halokatga uchraydi.
19 Urishqoq va badjahl xotin bilan yashagandan ko‘ra,
cho‘lu biyobonda yashash yaxshiroq.
20 Dononing uyida yog‘ ham, eng yaxshi narsalar ham bor,
aqlsiz esa uni sarflab yuboradi.

21 To‘g‘rilik va sadoqat payida bo‘lganlar
uzoq umr, solihlik va shon–shuhratga erishadi.
22 Dono eng qudratli shaharga borib,
tayanch bo‘lgan qal’ani ham vayron qiladi.
23 Og‘zini va tilini qo‘riqlagan
o‘z jonini tashvishlardan asraydi.
24 Takabbur va mag‘rurning nomi “mazaxchi”,
hamma narsani manmanlik bilan qiladi.
25 Dangasaning orzusi o‘limga olib keladi,
chunki qo‘llari ishga bormaydi.
26 Dangasaning kuni badnafslik bilan o‘tadi,
solih esa ayamasdan beradi.
27 Fosiqlarning qurbonligi jirkanchdir,
yovuz niyat bilan keltirilgani esa undan ham battar.
28 Soxta guvoh yo‘q bo‘ladi,
haqiqatga quloq solgan esa qoladi.
29 Fosiqning yuzi qattiq,
solih esa o‘z yo‘lini biladi.
30 Egamizga qarshi donolik ham,
idrok ham, reja ham yo‘q.
31 Ot jang kuni uchun tayyorlanadi,
g‘alaba esa Egamizning qo‘lida.

22–BOB

1 Yaxshi nom — eng katta boylikdan ortiq,
marhamatga sazovor bo‘lish esa
kumushu oltindan ham yaxshi.
2 Boy bilan kambag‘alning bir o‘xshashligi bor,
ikkovini ham Egamiz yaratgan.
3 Es–hushli odam xavf–xatarni ko‘rib yashirinadi,
sodda* esa to‘xtamasdan boraveradi, shuning uchun qiynaladi.
4 Kamtarlik va Egamizdan qo‘rqish*
boylik, hurmat va hayot keltiradi.
5 Egrining yo‘lida tikanzor va tuzoqlar bor,
o‘z jonini asragan undan uzoqlashadi.
6 Bolani to‘g‘ri yo‘lga solib tarbiyala,
shunda qariganda ham yo‘lidan adashmaydi.
7 Boylar kambag‘allar ustidan hukmronlik qiladi,
qarzdor qarz berganning qulidir.
8 Fosiqlikni ekkan tashvish yig‘adi,
jahl qamchisi sinadi.
9 Saxiy baraka topadi,
chunki o‘z nonini kambag‘allar bilan baham ko‘radi.
10 Mazax qiluvchini oradan quv!

Shunda g‘avg‘o ketadi,
janjalu haqorat ham barham topadi.
11 Pokdillikni sevib,
xushmuomala bo‘lganga shoh do‘st bo‘ladi.
12 Egamiz ilm–ma’rifatli insonni asraydi,
U xoinning so‘zlarini puchga chiqaradi.
13 Dangasa: “Tashqarida sher bor,
ko‘chada meni o‘ldiradi”, — deydi.
14 Buzuq ayolning og‘zi tubsiz chohdir,
Egamizning g‘azabiga uchraganlar unga tushadi.
15 Aqlsizlik bolaning diliga o‘rnashgan,
uning bu aqlsizligini kaltak haydab chiqaradi.
16 Boy bo‘laman deb qashshoqni ezgan ham,
boyga sovg‘a qilgan ham kambag‘allashadi.

O‘ttizta dono nasihat

(22:17-24:22)

17 Donolarning so‘zlariga quloq tut,
qalbingni bilimimga och.
18 Chunki bu so‘zlarni qalbingda saqlasang,
diling yashnaydi,
ular doim tilingda tayyor bo‘lsin.
19 Egamizga umid bog‘lagin deb
bugun shularni o‘rgatyapman.
20 Senga bilim va maslahat bilan
o‘ttizta nasihat yozib bermaganmidim?!
21 Bu haqiqat so‘zlarini o‘rganib,
seni yuborganlarga aytib berishing uchun edi.

Birinchi nasihat

22 Kambag‘alni kambag‘alligi uchun talama,
baxtsizni darvoza oldida hukm qilganda qiynama.
23 Chunki Egamiz ularni himoya qilib,
zolimlariga O‘zi zulm qiladi.

Ikkinchi nasihat

24 Urishqoq bilan do‘stlashma,
badjahl bilan yurma.
25 Bo‘lmasa sen ham ularning yo‘liga tushib qolasan,
joningni tuzoqqa ilintirasan.

Uchinchi nasihat

26 Begona bilan qo‘l tashlashma,
o‘zganing qarziga kafillik berma*.
27 Agar o‘shaning qarzini to‘lashga hech narsang bo‘lmasa,
hatto, tagingdagi to‘shagingdan ham ayrilib qolasan.

To‘rtinchi nasihat

28 Ota–bobolaring qo‘ygan qadimiy chegaralarni buzma*.

Beshinchi nasihat

29 O‘z ishiga mohir ustani ko‘rganmisan?
U oddiy odamlarga emas, shohga xizmat qiladi.

23–BOB

Oltinchi nasihat

1 Hokim bilan ovqatlanishga o‘tirganda,
oldingga qo‘yilgan narsalarga nazar sol.
2 Agar ishtahang katta bo‘lsa,
bo‘g‘zingga pichoq tiralganday, o‘zingni nazorat qil.
3 Uning ne’matlarini ko‘ngling tusamasin,
chunki bu aldamchi taomdir.

Yettinchi nasihat

4 Boy bo‘lay deb ko‘p harakat qilma,
fahmu farosat bilan bu fikringdan voz kech.
5 Boylik ko‘z ochib yumguncha yo‘q bo‘ladi,
qanot qoqib burgutday osmonga uchib ketadi.

Sakkizinchi nasihat

6 Xasisning ovqatidan yema,
uning ne’matlarini ko‘ngling tusamasin.
7 Chunki u ko‘nglida o‘zining foydasini hisoblaydi*,
“Yegin, ichgin”, — deydi–yu, ko‘ngli sen bilan emas.
8 Yegan luqmangni qayt qilasan,
shirin so‘zlaring havoga uchib ketadi.

To‘qqizinchi nasihat

9 Ahmoqqa gap gapirma,
u hikmatli so‘zlaringni rad etadi.

O‘ninchi nasihat

10 Qadimiy chegaralarni buzma*,
yetimlarning dalasini tortib olma.
11 Chunki ularning Himoyachisi qudratli,
U yetimlarning tarafini oladi.

O‘n birinchi nasihat

12 Yuragingni nasihatga,
quloqlaringni esa idrokka och.

O‘n ikkinchi nasihat

13 Boladan tanbehni ayama,
chunki tayoq bilan ursang o‘lmaydi.
14 Tayoq bilan urib jazolasang,
jonini do‘zaxdan* saqlaysan.

Oʻn uchinchi nasihat

15 Oʻgʻlim*, qalbingda donolik boʻlsa,
yuragim quvonadi.
16 Tilingdan toʻgʻri soʻz chiqsa,
koʻnglim ham shodlanadi.

Oʻn toʻrtinchi nasihat

17 Gunohkorlarga havas qilma,
doimo Egamizdan qoʻrqib* yur.
18 Chunki albatta kelajak bor,
umiding roʻyobga chiqadi.

Oʻn beshinchi nasihat

19 Oʻgʻlim, tinglab dono boʻl,
yuragingni toʻgʻri yoʻlga sol.
20 Mayxoʻr va ochkoʻzlik bilan goʻsht yeydiganlar orasida boʻlma.
21 Chunki mayxoʻr va ochkoʻz qashshoq boʻladi,
uyquchilik juldur kiyim kiydiradi.

Oʻn oltinchi nasihat

22 Seni dunyoga keltirgan otangga quloq sol,
onang qariganda uni xor qilma.
23 Haqiqatni sotib ol,
donolik, yoʻl–yoʻriq, idrok ham ol, ularni sotma.
24 Solih otasining boshini koʻkka yetkazadi,
dono farzand* uni xursand qiladi.
25 Ota–onang sendan xursand boʻlsin,
senga hayot bergan onang shod boʻlsin.

Oʻn yettinchi nasihat

26 Oʻgʻlim, menga qalbingni och,
koʻzlaring ishlarimni kuzatsin.
27 Chunki buzuq xotin — tubsiz choh,
zinokor xotin tor quduqdir.
28 U qaroqchi kabi poylab turadi,
odamlar orasida vafosizlikni orttiradi.

Oʻn sakkizinchi nasihat

29 Qaygʻu kimda, kim gʻam–tashvish tortadi?
Kim janjal qiladi, shikoyat qilgan kim?
Kim sababsiz yaralanadi?
Kimning koʻzlari qip–qizil?
30 Sharob ichishga berilganlar,
xushboʻy mayni totib koʻrishga koʻp borganlar.
31 Sharobning qizilligiga,
qadahda choʻgʻday tovlanishiga,
tekis quyilishiga qarama.
32 Oxirida u ilon kabi chaqadi,

qora ilonday zahar sochadi.
33 Ko‘zlaring g‘alati narsalarni ko‘radi,
yuragingda egri fikrlar bo‘ladi.
34 Ko‘pirgan dengiz o‘rtasida yotganday,
to‘lqinlarda chayqalgan kemada uxlaganday bo‘lasan.
35 “Meni urdilar, og‘rimadi,
kaltakladilar, lekin bilmadim.
Qachon uyg‘onaman?
Yana bir ichay”, — deysan.

24–BOB

O‘n to‘qqizinchi nasihat

1 Fosiqlarga havas qilma,
ular bilan birga bo‘lishga intilma.
2 Chunki ular zo‘ravonlikni niyat qiladi,
tillari yomonlikni gapiradi.

Yigirmanchi nasihat

3 Uy donolik bilan quriladi,
idrok bilan mustahkam bo‘ladi.
4 Xonalar esa bilim bilan turli qimmatbaho,
qimmatli boylikka to‘ladi.

Yigirma birinchi nasihat

5 Dono sipohlar kuchli sipohlardan*,
ilm–ma’rifatlilar esa kuchi borlardan qudratliroqdir.
6 Yaxshi odam yo‘l–yo‘riq bilan urushga boradi,
maslahatchilar ko‘pligi tufayli g‘alaba qiladi.

Yigirma ikkinchi nasihat

7 Ahmoq donolikka yetishmaydi,
hukmda og‘zini ocha olmaydi.

Yigirma uchinchi nasihat

8 Yomon niyat qiluvchining nomi shakkokdir.
9 Ahmoqlik bilan tuzilgan reja gunohdir,
mazaxchidan odamlar jirkanadi.

Yigirma to‘rtinchi nasihat

10 Tashvishli kunda ojiz bo‘lganning kuchi kamdir.

Yigirma beshinchi nasihat

11 O‘limga mahkum bo‘lganlarni,
dorga olib ketilayotganlarni qutqar.
12 “Bilmayman”, — desang ham,
yurakni sinaydigan Xudo ko‘rmaydimi,
jonni asraydigan buni bilmaydimi?
Hammaga ularning ishiga yarasha qaytarmaydimi?

Yigirma oltinchi nasihat

13 O‘g‘lim*, asal yeb ko‘rgin, u yaxshi,
asalari mumi og‘zingga shirindir.
14 Donolik joningga asaldaydir,
unga erishsang kelajagingni topasan,
umiding ro‘yobga chiqadi.

Yigirma yettinchi nasihat

15 Ey fosiq, solihning uyiga pistirma qurma,
uy–joyiga tegma.
16 Solih yetti marta yiqilsa ham turib ketaveradi,
fosiq esa halokatga uchraydi.

Yigirma sakkizinchi nasihat

17 Dushmaning yiqilganda sevinma,
qoqilgani uchun yuraging quvonmasin.
18 Bo‘lmasa Egamiz buni ko‘rib yoqtirmay,
g‘azabini undan o‘giradi.

Yigirma to‘qqizinchi nasihat

19 Fosiqlardan jahling chiqmasin,
yomonlarga havas qilma.
20 Chunki yomonlarning kelajagi yo‘q,
fosiqlarning chirog‘i o‘chib qoladi.

O‘ttizinchi nasihat

21 Ey o‘g‘lim, Egamizdan ham, shohdan ham qo‘rq,
ularga qarshi bosh ko‘tarma*.
22 Chunki ulardan kulfat kutilmaganda keladi,
ikkovidan keladigan halokatni kim biladi?!

Dono o‘gitlar

(24:23-34)

23 Quyidagi so‘zlar ham donolardan.

Hukmda tarafkashlik qilish yaxshi emas.
24 Fosiqqa “solihsan” deganni el la’natlaydi,
xalqlar undan nafratlanadi.
25 Unga tanbeh berganlardan xursand bo‘ladi,
ular qut–baraka topadilar.
26 To‘g‘ri javob beradiganlarni hamma sevadi.

27 Tashqaridagi yumushingni bajar,
daladagi barcha ishlaringni tartibga sol,
keyin uyingni qurgin.

28 Sababsiz o‘zgaga qarshi guvohlik berma,
tiling bilan aldama.

29 “Menga nima qilgan bo‘lsa, men ham shunday qilaman,
qilmishiga yarasha qaytaraman”, dema.

30 Men dangasaning dalasidan,
nodonning uzumzori yonidan o‘tdim.
31 Ana, hamma yoq tikanzor,
hamma yerda qichitqi o‘t,
tosh devor ham qulab, yer bilan bitta bo‘lib yotibdi.
32 Qarab, o‘ylab ko‘rdim,
uni ko‘rib saboq oldim.
33 “Bir oz uxlay, bir mizg‘ib olay,
yonboshlab birpas dam olay”, — deydi.
34 Shuning uchun qashshoqlik yo‘lto‘sarday,
muhtojlik esa qaroqchiday ustiga keladi.

Hizqiyo tomonidan to‘plangan Sulaymon hikmatlari

(25:1-29:27)

25–BOB

1 Quyidagilar ham Sulaymonning hikmatlaridir. Bu hikmatlar Yahudo shohi Hizqiyoning* odamlari tomonidan yozib olingan.

2 Ishlarni sirli qilish — Xudoning shuhrati*,
ishlarni tekshirib bilish esa shoh sharafidir.
3 Osmon baland, dengiz chuqur,
shohning yuragi ham shunday,
uni tushunish qiyin.
4 Kumushdan chiqindini olib tashla,
o‘shanda undan yaxshi idish yasaladi.
5 Fosiqni shoh oldidan chiqarib tashla,
shunda shohning taxti haqiqat bilan mustahkam bo‘ladi.
6 Shohning oldida o‘zingni yuqori qo‘yma,
ulug‘ odamlar turganda to‘rga chiqma.
7 Chunki o‘zing ko‘rib turgan asilzodalar oldida
birov seni poygakka tushirgandan ko‘ra,
“To‘rga o‘ting” degani yaxshiroq.

8 Shoshilib arz qilma,
oxirida qo‘shnilarning oldida uyalib qolsang nima bo‘ladi?
9 Qo‘shningning o‘zi bilan gaplash,
sirni boshqalarga ochma.
10 Bo‘lmasa, eshitganlar seni uyatga qo‘yadi,
noming bir umrga yomon bo‘ladi.

11 O‘z o‘rnida aytilgan so‘z tilla uzukka qo‘yilgan yoqut ko‘zdaydir.

12 Dononing tanbehi tinglagan quloqqa
tilla sirg‘a va oltin bezakdaydir.
13 Sadoqatli xabarchi uni yuborganlarga
jazirama o‘rim paytidagi salqin suvdaydir,
xo‘jayinining qalbini sevintiradi.
14 Qilmagan sovg‘asi bilan maqtanadigan odam
yomg‘irsiz bulut va shamol kabidir.
15 Sabr–toqat bilan gapirilsa amaldor ham ko‘nadi,
muloyim so‘z toshni ham sindiradi.
16 Asal topsang, yetarlicha yegin,
ortiqchasi qayt qildiradi.
17 Qo‘shningnikiga hadeb kiraverma,
bo‘lmasa sendan bezib, yomon ko‘rib qoladi.
18 O‘zgaga qarshi soxta guvohlik bergan odam
bolta, qilich, o‘tkir o‘qqa o‘xshaydi.
19 Tashvishli kunda vafosizga suyanish
singan tish va cho‘loq oyoqqa ishonish kabidir.
20 G‘amgin odam oldida qo‘shiq aytish
ayozda ust–boshini yechib tashlaganday, jarohatga sirka surtish kabidir.
21 Dushmaning och bo‘lsa, ovqat ber,
chanqagan bo‘lsa, suv ichir.
22 Shunda uning boshiga yonayotgan cho‘g‘ yiqqanday bo‘lasan,
Egamiz esa seni taqdirlaydi.
23 Shimoldan esadigan shamol jala,
g‘iybat esa g‘azab keltiradi.
24 Urishqoq xotin bilan keng uyda yashagandan ko‘ra,
loy tomning bir chetida yashagan yaxshiroq.
25 Uzoq yurtdan kelgan xushxabar
charchagan odamga sovuq suv kabidir.
26 Fosiqqa bosh eggan solih
loyqalangan buloq va buzilgan quduqdaydir.
27 Ko‘p asal yeyish yaxshi emas,
izzattalab bo‘lish ham hurmat keltirmaydi.
28 O‘zini tuta olmaydigan odam
devorsiz vayrona shahar kabidir.

26–BOB

1 Aqlsizga izzat–hurmat ko‘rsatish
yozda yoqqan qor, yig‘im–terim paytidagi yomg‘ir kabidir.
2 Qushlar bekorga osmonga ko‘tarilmaganday,
sababsiz la’nat ham odamga tegmaydi.
3 Otga — qamchi, eshakka — suvluq,
aqlsizning orqasiga esa — tayoq.
4 Nodonning nodon savollariga javob berma,

bo‘lmasa sen ham unga o‘xshab qolasan.
5 Nodonning gaplari bema’niligini oshkor qil,
tag‘in o‘zicha dono bo‘lib ketmasin.
6 Aqlsiz orqali xabar yuborgan odam
oyog‘ini kesib tashlaganday azob chekadi.
7 Ahmoqning og‘zidagi matal cho‘loq oyoqdaydir.
8 Aqlsizga izzat–hurmat ko‘rsatish
palaxmonga tosh bog‘lab qo‘yish kabidir.
9 Nodonning tilidagi matal
mastning qo‘lidagi tikandaydir.
10 Ahmoqni va yo‘ldan o‘tgan har bir mastni yollagan odam
duch kelganni otadigan kamonkashga o‘xshaydi.
11 O‘z qusug‘iga qaytib keladigan it kabi,
nodon ham o‘z aqlsizligini takrorlaydi.
12 O‘zini dono deb o‘ylaganni ko‘rganmisan?
Undan ko‘ra, aqlsizdan umid ko‘proq.
13 Dangasa: “Ko‘chada sher bor,
u ochiq maydonda yuribdi”, — deydi.
14 Eshik o‘z o‘qida aylanadi,
tanbal esa o‘z to‘shagida.
15 Dangasa qo‘lini kosaga cho‘zadi–yu,
og‘ziga olib kelishga erinadi.
16 Tanbal o‘z nazarida
farosat bilan gapiradigan yetti kishidan ham donoroq.
17 Boshqalarning janjaliga aralashgan
daydi itning qulog‘idan cho‘zgandaydir.
18 Telba o‘t, nayza va o‘lim yog‘diradi.
19 Birovni aldab: “Faqat hazillashgan edim” degan ham shundaydir.
20 O‘tin bo‘lmasa, o‘t o‘chib qoladi,
chaqimchi bo‘lmasa, janjal to‘xtaydi.
21 Ko‘mir — cho‘g‘ uchun, o‘tin — olov uchun,
urishqoq esa janjal chiqarish uchundir.
22 G‘iybatchining so‘zi shirin ovqat kabidir,
odamning butun a’zoyi badaniga singib ketadi.
23 Shirin so‘zli niyati yomon odam
kumush suvi yuritilgan* sopol idish kabidir.
24 Dushman tilida boshqacha so‘zlaydi,
dilida esa aldashni niyat qiladi.
25 U yumshoq so‘zlaganda ishonma,
chunki yuragi qabihlikka to‘la.
26 Nafrat yolg‘on bilan yashirilgan bo‘lsa ham,
yomonligi el–yurtga oshkor bo‘ladi.
27 Birovga chuqur qaziganning o‘zi unga tushadi,
tosh dumalatganga esa o‘sha tosh qaytadi.
28 Yolg‘onchi til o‘zi yaralagan odamni yomon ko‘radi,

xushomadgoʻy halokat keltiradi.

27–BOB

1 Ertangi kun bilan maqtanma,
uning nima olib kelishini bilmaysan–ku!
2 Seni oʻzing emas, boshqalar,
oʻz ogʻzing emas, oʻzgalar maqtasin.
3 Tosh ham, qum ham ogʻir,
aqlsizning gʻazabi esa ikkovidan ham ogʻirroq.
4 Jahl — zolim, gʻazab bir toshqindir,
rashk oldida kim bardosh bera oladi?!
5 Oshkora tanbeh pinhona mehrdan yaxshiroq.
6 Dushmanning shirin soʻzi emas,
doʻstning kaltaklashi sadoqatni koʻrsatadi.
7 Toʻq odam asalni ham oyoq osti qiladi,
ochga esa achchiq narsa ham shirin.
8 Oʻz uyini tashlab ketgan odam
inidan ayrilgan qushga oʻxshaydi.
9 Xushboʻy moy va muattar atir koʻngilni shod qiladi,
doʻstning samimiy maslahati quvonch keltiradi.
10 Oʻz doʻstingni va otangning doʻstini tashlab ketma,
ogʻir kunda akangnikiga chopma,
yaqin qoʻshni uzoqdagi akadan yaxshiroq.
11 Ey oʻgʻlim*, dono boʻl, qalbimni quvontir,
shunda birov meni tanqid qilsa ham,
javob qaytara olaman.
12 Es–hushli odam xavf–xatarni koʻrib yashirinadi,
sodda* esa toʻxtamasdan boraveradi, shuning uchun qiynaladi.
13 Begonaga kafillik qilganning* toʻnini yechib ol,
ha, bunday aqlsiz odamdan kiyimini garov qilib ol.
14 Tong–saharlab doʻstiga hamdu sano aytgan odam
unga la’nat oʻqigan boʻladi.
15 Janjalkash xotin
yomgʻirli kunda toʻxtamay tomayotgan chakkaga oʻxshaydi.
16 Uni boshqarish shamolni boshqarish
yoki oʻng qoʻl bilan moyni ushlash demakdir.
17 Temir temirni oʻtkirlaydi, inson esa doʻstini.
18 Anjirni parvarish qilgan odam
uning mevasidan bahramand boʻladi,
sohibiga yaxshi qaragan izzat–hurmatga ega boʻladi.
19 Suv insonning yuzini aks ettirgani kabi,
yuragi ham uning koʻzgusidir.
20 Oʻlim va Halokat* hech toʻymaganiday,
insonning koʻzi ham aslo toʻymaydi.

21 Kumush, oltin olovda sinaladi,
odam esa maqtovda.
22 Ahmoqni keliga solib don bilan birga yanchsang ham,
ahmoqligi undan ajralmaydi.

23 Qo‘ylaringning ahvolini yaxshi bil,
podalaringga yaxshi qara.
24 Chunki boylik ham, toj ham abadiy emas.
25 O‘tlar qurib, yangi ko‘katlar o‘sib chiqqanda,
qir–adirdagi o‘t–o‘lanlar yig‘ib olinganda,
26 qo‘zilar kiyim–kechagingni,
echkilar esa dala bahosini qoplaydi.
27 Echkilarning suti ko‘p,
senga ham, uy ahlingga ham,
hatto xizmatkorlaringga ham yetarli bo‘ladi.

28–BOB

1 Fosiqni hech kim quvmasa ham qochaveradi,
solih esa sherday botir.
2 Yurtda isyon bo‘lganda boshliq ko‘payadi,
ammo aql–idrokli rahnamo tufayli
yurtda tinchlik barqaror bo‘ladi.
3 Ojizlarni ezadigan kambag‘al
ovqat qoldirmaydigan seldaydir.
4 Qonunni tan olmaydiganlar fosiqlarni maqtaydi,
qonunga amal qiladiganlar esa ular bilan kurashadi.
5 Fosiq adolatni tushunmaydi,
Egamizga intilgan esa hamma narsani tushunadi.
6 Kambag‘al bo‘lib to‘g‘ri yurish
boy bo‘lib egri yurgandan yaxshiroq.
7 Dono farzand* qonunga rioya qiladi,
yaramasga ulfat bo‘lgan esa otasini sharmanda qiladi.
8 Sudxo‘r va ochko‘z odam boylik yig‘adi,
ammo boyligi qashshoqqa achinadiganga nasib etadi.
9 Qonundan yuz o‘girganning ibodati ham jirkanchlidir.
10 To‘g‘ri odamni yomon yo‘lga boshlagan odam
qazigan chuquriga o‘zi tushadi,
pokdil esa yaxshilik topadi.
11 Boy o‘zining nazarida dono,
aqlli kambag‘al esa o‘zini tekshiradi.
12 Solih martabaga erishganda katta bayram,
fosiq lavozimga kelsa odamlar yashirinadi.
13 O‘z gunohlarini yashirgan yutuqqa erishmaydi,
ularni tan olib, voz kechgan marhamat topadi.
14 Doim Xudodan qo‘rqqan* baxtlidir!

Bag‘ri tosh odam esa baloga uchraydi.
15 Ojiz xalq ustidagi yovuz hukmdor
irillayotgan sher va hujum qilayotgan ayiqdaydir.
16 Aqlsiz hukmdor nihoyatda zolim bo‘ladi,
adolatsiz foydadan nafratlanadigan uzoq yashaydi.
17 Agar birov odam o‘ldirgan bo‘lsa, o‘lguncha qochib yursin,
unga hech kim yordam bermasin.
18 To‘g‘ri yuradigan najot topadi,
egri yo‘ldan yuradigan esa yiqiladi.
19 O‘z yeriga ishlov berganning noni mo‘l bo‘ladi,
orzu–xayollarga berilgan esa qashshoqlikka uchraydi.
20 Sodiq kishi ko‘p baraka topadi,
boyishga shoshilgan jazosiz qolmaydi.
21 Tarafkashlik yaxshi emas,
bir to‘g‘ram non deb odam vafosizlik qiladi.
22 Xasis odam boylik orqasidan quvib,
boshiga qashshoqlik kelishini bilmaydi.
23 Tanqid qiladigan odam
xushomadgo‘yga qaraganda ko‘proq marhamat topadi.
24 Ota–onasining mulkini o‘g‘irlab,
“Bu gunoh emas” degan odam buzg‘unchiga sherikdir.
25 Ochko‘z janjal chiqaradi,
Egamizga ishongan esa to‘q yashaydi.
26 O‘zigagina ishongan ahmoqdir,
aql bilan yuradigan esa najot topadi.
27 Kambag‘alga bergan odam kam bo‘lmaydi,
ko‘rib–ko‘rmaslikka olgan esa ko‘p la’natga uchraydi.
28 Fosiqlar martabaga erishsa odamlar yashirinadi,
fosiqlar halokatga yo‘liqqanda esa solihlar ko‘payadi.

29–BOB

1 Tanbeh olsa ham o‘jarligicha qoladigan odam
birdaniga halokatga uchraydi, shifo topmaydi.
2 Solihlar ko‘payganda xalq sevinadi,
fosiq hukmron bo‘lganda esa fig‘on chekadi.
3 Donolikni sevgan o‘g‘il otasini sevintiradi,
fohisha bilan aloqada bo‘lgan mol–mulkini sovuradi.
4 Shoh yurtni adolat bilan mustahkamlaydi,
sovg‘ani sevadigan esa xarob qiladi.
5 Do‘stiga xushomad qilgan odam
o‘z* oyoqlariga tuzoq qo‘yganday bo‘ladi.
6 Fosiqning gunohi qopqon,
solih esa qo‘shiq aytib quvonadi.
7 Solih ojizning haq–huquqini biladi,

fosiqda esa bunday tushuncha ham yoʻq.
8 Mazax qiluvchilar shaharda toʻpolon qiladi,
donolar esa gʻazabni tinchlantiradi.
9 Dono ahmoqni sudlashgani mahkamaga olib borsa,
ahmoq janjal qiladi, haqoratlaydi.
Dono esa halovatga erishmaydi.
10 Qonxoʻr odam pokdil insondan nafratlanadi,
toʻgʻrining jonini olmoqchi boʻladi*.
11 Nodon bor jahlini toʻkib soladi,
dono esa ichida saqlaydi.
12 Hukmdor yolgʻonga quloq solsa,
barcha xizmatkorlari fosiq boʻladi.
13 Zolim bilan ojizning bir oʻxshashligi bor:
ikkoviga ham Egamiz koʻz nuri bergan.
14 Shoh kambagʻalni adolat bilan hukm qilsa,
uning taxti abadiy mustahkam turadi.
15 Qamchi va nasihat aql kiritadi,
oʻz holiga tashlab qoʻyilgan bola esa
onasiga uyat keltiradi.
16 Fosiq koʻpayganda gunoh ham koʻpayadi,
solih esa fosiqning halokatini koʻradi.
17 Farzandingga* tarbiya ber:
u senga orom keltiradi,
qalbingni shodlikka toʻldiradi.
18 Vahiy boʻlmasa el–yurt yoʻldan ozadi,
Xudoning qonuniga amal qilgan baxtlidir!
19 Qul faqat soʻz bilan tarbiyalanmaydi,
soʻzni tushunsa ham amal qilmaydi.
20 Oʻylamay gapiradiganni koʻrganmisan?!
Undan koʻra, nodondan umid koʻproq.
21 Qulni yoshligidan erkalatib oʻstirsa,
oqibatda xoʻjayiniga qaygʻu boʻladi*.
22 Serjahl odam janjal chiqaradi,
serzarda koʻp gunoh qiladi.
23 Odamning magʻrurligi uni past qiladi,
kamtarin esa izzat–hurmat topadi.
24 Oʻgʻriga sherik boʻlgan oʻz jonini yomon koʻradi,
u tanbeh eshitsa ham churq etmaydi.
25 Odamdan qoʻrqish tuzoqqa ilintiradi,
Egamizga umid bogʻlagan esa
xavf–xatardan xoli boʻladi.
26 Hukmdor marhamatini qidirgan koʻp,
lekin insonni hukm qiladigan Egamizdir.
27 Fosiq solihga jirkanch,
toʻgʻri yuradigan esa fosiqqa jirkanchdir.

Ag‘urning so‘zlari

(30:1-33)

30–BOB

1 Yoxining o‘g‘li Ag‘urning Ixtiyolga bergan, Itel va Uxalga aytgan so‘zlari*:

2 “Rostdan ham odamlar orasida eng aqlsizi ekanman,
insonning aql–idroki menda yo‘q.
3 Na donolikni o‘rganibman,
na Muqaddas Xudoni bilibman.
4 Kim osmonga ko‘tarilgan, osmondan tushgan?
Shamolni hovuchlariga yiqqan kim?
Kim suvni o‘z kiyimiga o‘ragan?
Yerning barcha chegaralarini o‘rnatgan kim?
Uning ismi nima?
O‘g‘lining ismi–chi?
Bilasan–ku!

5 Xudoning har bir so‘zi haqiqatdir,
O‘zi esa Unga umid bog‘laganning qalqoni.
6 Uning so‘zlariga qo‘shma,
U jazolasa, yolg‘oning fosh etilsa nima qilasan?

7 Sendan ikki narsani so‘rayman,
o‘lmasimdan oldin qilgin.
8 Soxtalik va yolg‘onni mendan uzoqlashtir,
menga qashshoqlik ham, boylik ham emas,
faqat nasibamni bergin.
9 Qornim to‘yganda: «Egam kim o‘zi?» deb aytmayin,
kambag‘allikdan o‘g‘rilik qilib, Uni badnom qilmayin.

10 Qul seni la’natlamasligi uchun uni egasiga yomonlama,
bo‘lmasa jazolanasan.

11 Shunday nasl borki, otasiga la’nat o‘qiydi,
onasini duo qilmaydi.
12 Shunday nasl borki, o‘zining nazarida pok,
lekin iflosligidan tozalanmagan.
13 Shunday nasl bor, ko‘zlari qanchalik takabbur,
qarashlari ham mag‘rur.
14 Shunday nasl borki, tishlari — qilich,
qoziq tishlari esa pichoq,
yer yuzidan kambag‘alni,
odamlar orasidan muhtojni yo‘qotadi.

15 Zulukning ikki qizi bor:
«Ber, ber!» — deb aytadi.
Hech qachon qoniqmaydigan uch narsa,
yetarli, demaydigan to‘rt narsa bor.
16 Do‘zax*, bepusht bachadon,
suvsiragan tuproq hamda olov, yetarli, demaydi.

17 Otani mazaxlaydiganning,
onaga bo‘ysunishni rad etadiganning ko‘zlarini
quzg‘unlar cho‘qiydi,
kalxat bolalari yeydi.

18 Meni hayron qoldiradigan uch narsa bor,
to‘rt narsa borki, aqlimga sig‘maydi:
19 havodagi burgutning yo‘li,
tosh ustidagi ilonning yo‘li,
dengiz o‘rtasidagi kemaning yo‘li hamda
qizga yuradigan erkaklarning yo‘li.
20 Zinokor ayolning yo‘li ham shundaydir:
u yeb bo‘lgach, og‘zini artib:
«Hech bir egrilik qilmadim–ku!» deydi.

21 Yer uch narsadan larzaga keladi,
to‘rt narsani ko‘tara olmaydi:
22 qul shohlik qilganda,
ahmoq to‘yganda,
23 shallaqi ayol erga tekkanda,
cho‘ri bekasining o‘rnini olganda.

24 Yer yuzida to‘rtta kichkina narsa bor,
lekin o‘ta dono:
25 chumolilar zaif,
lekin yeguligini yozda tayyorlaydi.
26 Bo‘rsiq kamquvvat,
lekin inini qoyaga quradi.
27 Chigirtkalarning* sardori yo‘q,
lekin barchasi hamjihat yurish qiladi.
28 O‘rgimchakni* qo‘l bilan ushlasa bo‘ladi,
lekin saroyda ham yuradi.

29 Yurishi salobatli uch narsa,
qadami ulug‘vor to‘rt narsa bor:
30 sher hayvonlar ichida eng kuchlisi,
hech nimadan qochmaydi.
31 Maqtanib yuradigan xo‘roz*,
serka va g‘olib shoh*.

32 Agar ahmoqlik qilib o‘zingni maqtagan bo‘lsang,
birovga yomonlik qilaman, deb aytgan bo‘lsang,
ovozingni o‘chir, og‘zingni yop!
33 Chunki kuv* pishsa yog‘ chiqadi,
burunga ursa qonaydi,
jahlni qo‘zg‘atsa janjal chiqadi.”

Shohga maslahat

(31:1-9)

31–BOB

1 Shoh Lemulning so‘zlari. Bu so‘zlarni unga onasi o‘rgatgan:

2 “O‘g‘lim, nima desam ekan?
Nima deyin, ey jigarbandim?
Xudodan tilab olgan o‘g‘lim, senga ne aytay?
3 Quvvatingni xotinlarga berma,
shohni buzadiganlarga hayotingni sarf qilma.
4 Ey Lemul, shohlar uchun emas sharob,
may amaldorlar uchun emas!
5 Ular ichib qonunni unutadi,
ezilgan xalqni hukm etishda egrilik qiladi.
6 Mayni halok bo‘layotganga,
sharobni qayg‘u chekkanga bergin.
7 Ular ichib kambag‘alligini unutsin,
falokatlarini eslamasin.
8 Og‘zingni gung uchun ochgin,
boshiga kulfat tushganlarning tarafini olgin.
9 Gapir, adolat bilan hukm qil,
bechora va kambag‘allarni himoya qil.”

Farosatli xotin

(31:10-31)

10 Farosatli xotinni kim topa oladi?
Uning bahosi gavhardan ham baland.
11 Eri unga yurakdan ishonadi,
hech narsaga muhtoj bo‘lmaydi.
12 U eriga yomonlik emas,
bir umr yaxshilik qiladi.
13 Jun va surp topadi,
xursand bo‘lib o‘z qo‘li bilan ishlaydi.
14 Savdo kemalari kabi uzoqdan nonini keltiradi.

15 Qorong‘ida o‘rnidan turib,
uy ahlini ovqatlantiradi,
xizmatkorlariga topshiriq* beradi.
16 Niyat qilib, dala sotib oladi,
o‘z qo‘li bilan uzumzor yaratadi.
17 Belini mahkam bog‘lab,
qo‘llariga quvvat beradi.
18 Qilgan ishining rohatini ko‘radi,
tunlari ham chirog‘i o‘chmaydi.
19 Qo‘lini charxga qo‘yadi,
barmoqlari ip yigiradi.
20 Kambag‘allarga qo‘lini uzatadi,
muhtojlarga rahm qiladi.
21 Uy ahli uchun qish–qirovdan qo‘rqmaydi,
chunki ular hammasi qalin kiyintirilgan.
22 O‘zi uchun so‘zana tikadi,
libosi kimxob va shoyidandir.
23 Eri yurt oqsoqollari orasida o‘tiradi,
shahar darvozasida* tanilgan.
24 Yana shoyidan kiyim tikib sotadi,
savdogarlarga belbog‘ yetkazib beradi.
25 Libosi — quvvat, sharaf,
u kelajakka qarab quvonadi.
26 Donolik bilan so‘zlaydi,
mehr bilan nasihat qiladi.
27 Uy ahliga yaxshi qaraydi,
dangasalik qilmaydi.
28 Bolalari turib uni duo qiladi,
eri ham maqtaydi:
29 “Farosatli ayollar ko‘p,
ammo sen hammasidan a’losan.”
30 Joziba aldamchi, chiroy esa o‘tkinchidir,
ammo Egamizdan qo‘rqadigan ayol* ko‘kka ko‘tariladi.
31 Mehnatining mevasini ko‘rsin,
ishlari darvozalarda uni sharaflasin.

IZOHLAR

1:1 *Sulaymon* — 3 Shohlar 4:32 ga koʻra, Sulaymon 3000 matal yozgan.

1:4 *soddalar* — Sulaymonning hikmatlari kitobida *soddalar* deb tarjima qilingan ibroniycha soʻz odatda har qanday yaxshi–yomon gapga ishonib ketaveradigan odamlarga nisbatan ishlatilgan.

1:7 *Egamizdan qoʻrqish* — Sulaymonning hikmatlari kitobida bu ibora *Egamizni sevish va Unga ishonish* maʼnosini bildiradi. Xudodan qoʻrqadigan odam Unga sajda qiladi, ishonadi, Uning amrlariga itoat etadi.

1:7 *boshidir* — yaʼni *negizidir* yoki *asosidir* yoxud *oʻta ahamiyatli va muhim qismidir*.

1:7 *nodon* — Sulaymonning hikmatlari kitobida, shuningdek, Eski Ahdda, *nodon* yoki *ahmoq* deb tarjima qilingan ibroniycha soʻzlar axloqsiz odamlarni bildiradi. Bunday odamlar Xudoni sevmaydilar va Unga ishonmaydilar. Ularda solih yashashga undaydigan donolik yoʻq, shuning uchun ular halokatu oʻlimga yetaklaydigan qarorlar chiqaradi (shu bobning 20-33–oyatlariga qarang).

1:8 *Oʻgʻlim* — bu, muallif oʻz oʻgʻliga murojaat qilyapti, degani emas. Odatda donishmand muallim oʻz talabasiga shunday murojaat qilardi.

1:12 *doʻzax* — ibroniycha matnda *Sheoʻl*, boshqa joylarda *oʻliklar diyori* deb tarjima qilingan. Qadimda Isroil xalqi *Sheoʻl*ni yer ostidagi tubsiz chuqurlik, marhumlar boradigan qorongʻi joy deb tushunardi.

1:20 *Donolik* — “Sulaymonning hikmatlari” kitobida “donolik” baʼzan ayol obrazida gavdalantirilgan. Donolik ahmoqlikka zid qoʻyilgan, baʼzan ahmoqlik ham ayol sifatida gavdalantirilgan (9:13 ga qarang). 3:19, 8:22-31 oyatlarda yozilishi boʻyicha Xudo dunyoni donolik bilan yaratgan.

1:21 *…shahar darvozalarida…* — qadimgi paytlarda odamlar savdo–sotiq, ijtimoiy va huquqiy masalalarni hal qilish uchun shahar darvozasi oldida yigʻilishardi.

2:1 *Oʻgʻlim* — 1:8 izohiga qarang.

2:5 *Egamizdan qoʻrqish* — 1:7 ning birinchi izohiga qarang.

2:18 *oʻlim — Sheoʻl*, yaʼni oʻliklar diyori nazarda tutilgan. Qadimda Isroil xalqi *Sheoʻl*ni yer ostidagi tubsiz chuqurlik, marhumlar boradigan qorongʻi joy deb tushunardi.

3:1 *Oʻgʻlim* — 1:8 izohiga qarang.

3:6 *…U yoʻllaringni toʻgʻrilaydi* — yoki *…U soʻqmoqlaringni idora qiladi*.

3:7 *…Egamizdan qoʻrq* — 1:7 ning birinchi izohiga qarang.

3:12 *farzand* — ibroniycha matnda *oʻgʻil*.

3:12 *Ota…jazolaydi* — ibroniycha matndan. Qadimiy yunoncha tarjimada *Egamiz sevganiga tanbeh beradi, suygan oʻgʻlini jazolaydi*.

4:7 *…bor–yoʻgʻingni berib boʻlsa ham, idrok ol* — yoki *…yana nima olsang olaver, ammo bilim ol*.

4:10 *Oʻgʻlim* — 1:8 izohiga qarang.

4:26 *To‘g‘ri yo‘lni tanlab yur…* — yoki *Yuradigan yo‘llaringga e’tibor ber…*.

5:1 *O‘g‘lim* — 1:8 izohiga qarang.

5:5 *o‘liklar diyori* — ibroniycha matnda *Sheo‘l*. Qadimda Isroil xalqi *Sheo‘l*ni yer ostidagi tubsiz chuqurlik, marhumlar boradigan qorong‘i joy deb tushunardi.

5:7 *O‘g‘lim* — qadimiy yunoncha tarjimadan. Ibroniycha matnda *O‘g‘illarim*.

5:15 *…O‘z sardobangdagi, o‘z qudug‘ingdagi suvni…* — qadimgi Isroilda suv juda tanqis bo‘lib, quduqlar ehtiyot qilib qo‘riqlanardi. Shuning uchun har kim faqatgina o‘z qudug‘idan suv ichishi kerak edi. Xuddi shu singari har qanday erkak faqat o‘z xotini bilangina jinsiy aloqa qilishi kerak.

6:1 *O‘g‘lim* — 1:8 izohiga qarang.

6:1 *…o‘zgaga kafillik qilib, begona bilan ahdlashgan bo‘lsang…* — muallif 1-5–oyatlarda birortasining qarzini to‘lash uchun shoshma–shosharlik bilan berilgan va’daning oqibatlari haqida ogohlantiradi (yana 17:18, 20:16, 22:26-27, 27:13 ga qarang).

7:1 *O‘g‘lim* — 1:8 izohiga qarang.

7:7 *sodda* — 1:4 izohiga qarang.

7:14 *…qurbonlik keltirdim, va’dalarimni bajardim* — va’dani bajarish maqsadida keltirilgan tinchlik qurbonligiga ishora. Tinchlik qurbonligining go‘shtini nazr qiluvchi tanovul qilgan. Ayol yosh yigitga: “Uyimga kel, qurbonlik go‘shtini men bilan birga baham ko‘r”, deb shama qilyapti.

7:17 *mirra* — ma’lum bir daraxtlarning qotgan yelimidan tayyorlangan xushbo‘y modda.

7:22 *…tuzoqqa oyoq qo‘yayotgan kiyikday…* — qadimiy suryoniycha va yunoncha tarjimalardan. Oyatning bu qismidagi ibroniycha matnning ma’nosi bahsli.

7:27 *o‘liklar diyori* — 5:5 izohiga qarang.

8:1 *Donolik* — 1:20 izohiga qarang.

8:3 *…shahar darvozalarida…* — 1:21 izohiga qarang.

8:5 *Soddalar* — 1:4 izohiga qarang.

8:12 *Donolik* — 1:20 izohiga qarang.

8:13 *Egamizdan qo‘rqish* — 1:7 ning birinchi izohiga qarang.

8:29 *…yerga asos solganda…* — qadimda Isroil xalqining tasavvuriga ko‘ra, yer tep–tekis bo‘lib, yer ostida buyuk dengiz bor edi, dengiz tubida o‘rnatilgan ulkan ustunlar yerni ushlab turardi. Bu ustunlar dengizning eng tubidagi poydevorga tayanardi.

9:1 *Donolik* — 1:20 izohiga qarang.

9:4 *sodda* — 1:4 izohiga qarang.

9:10 *Egamizdan qo‘rqish* — 1:7 ning birinchi izohiga qarang.

9:10 *…boshidir* — 1:7 ning ikkinchi izohiga qarang.

9:18 *o‘liklar diyori* — 5:5 izohiga qarang.

10:1 *…farzand…farzand…* — ibroniycha matnda *…o‘g‘il…o‘g‘il…*.

10:22 *...Egamiz boylikka g‘am–tashvish qo‘shmaydi* — yoki *...ming uringaning bilan Egamiz marhamat qilganidan ortig‘ini ololmaysan*.

10:27 *Egamizdan qo‘rqish* — 1:7 ning birinchi izohiga qarang.

12:26 *Solih o‘zgalarga yo‘l ko‘rsatadi...* — yoki *Solih odam do‘stlik munosabatlarida ehtiyotkordir...* yoxud *Xudo solih odamni ziyon–zahmatdan asraydi....*

12:27 *...g‘ayratli esa qimmatbaho boylikka ega bo‘ladi* — yoki *...g‘ayratli esa o‘z mulkini yuqori baholaydi*.

13:1 *farzand* — ibroniycha matnda *o‘g‘il*.

13:15 *...xoinning yo‘li esa mashaqqatlidir* — yoki *...xoinning yo‘li davom etmas*.

14:2 *...Egamizdan qo‘rqadi...* — 1:7 ning birinchi izohiga qarang.

14:9 *Ahmoq odam ayb qurbonligi ustidan kuladi...* — ayb qurbonligi — gunoh qurbonligining maxsus turi. Biror odam boshqasini aldaganda, o‘g‘rilik qilganda yoki boshqa birovga zarar yetkazganda shu qurbonlikni keltirgan. Ahmoq odam gunoh va aybga beparvo bo‘ladi, ammo solih odam bunga e’tiborsiz bo‘lmagani uchun, Xudoning marhamatidan bahra oladi.

14:15 *Sodda* — 1:4 izohiga qarang.

14:16 *beparvo* — yoki *takabbur*.

14:33 *...nodonlar orasida ham o‘zini bildiradi* — ibroniycha matndan. Qadimiy yunoncha va suryoniycha tarjimalarda *ammo ahmoqlar yuragida donolik yo‘q*.

15:11 *O‘lim* — ibroniycha matnda *Sheo‘l*, boshqa joylarda *o‘liklar diyori* deb tarjima qilingan (shu bobning 24–oyatiga qarang). Qadimda Isroil xalqi *Sheo‘l*ni yer ostidagi tubsiz chuqurlik, marhumlar boradigan qorong‘i joy deb tushunardi.

15:11 *Halokat* — ibroniycha matnda *Abaddo‘n*. Bu so‘z *Sheo‘l*ni, ya’ni o‘liklar diyorini bildiradi.

15:16 *...Egamizdan qo‘rqib...* — 1:7 ning birinchi izohiga qarang.

15:20 *farzand* — ibroniycha matnda *o‘g‘il*.

16:6 *Egamizdan qo‘rqish* — 1:7 ning birinchi izohiga qarang.

16:12 *Shohning yomonlik qilishi qabihlikdir...* — yoki *Shoh yomonlik qilishdan nafratlanadi....*

16:33 *Qur’a tashlanadi...* — qur’a tashlashda yog‘och bo‘laklari yoki toshlar ishlatilgan bo‘lib, shu orqali Xudoning xohish–irodasi aniqlangan. Ba’zan odamlar qur’a tashlab, Xudodan biror ishni qanday yoki qachon qilish kerakligini so‘rashgan.

17:18 *Qo‘l tashlab...aqlsizdir* — 6:1 ning ikkinchi izohiga qarang.

17:19 *o‘ziga bino qo‘ygan* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *o‘z darvozasini baland qilib quradigan odam*.

17:25 *farzand* — ibroniycha matnda *o‘g‘il*.

18:18 *Qur’a* — 16:33 izohiga qarang.

19:18 *farzand* — ibroniycha matnda *o‘g‘il*.

19:23 *Egamizdan qo‘rqish* — 1:7 ning birinchi izohiga qarang.

19:25 *sodda* — 1:4 izohiga qarang.

19:27 *o‘g‘lim* — 1:8 izohiga qarang.

20:4 *kuzda* — qadimgi Isroilda ekish mavsumi kuzda boshlanar edi.

20:16 *Begonaga kafillik qilganning…* — 6:1 ning ikkinchi izohiga qarang.

21:11 *sodda* — 1:4 izohiga qarang.

22:3 *sodda* — 1:4 izohiga qarang.

22:4 *Egamizdan qo‘rqish* — 1:7 ning birinchi izohiga qarang.

22:26 *…o‘zganing qarziga kafillik berma* — 6:1 ning ikkinchi izohiga qarang.

22:28 *Ota–bobolaring qo‘ygan qadimiy chegaralarni buzma* — qadimgi Isroilda birortasi o‘z yerini ajratib olish uchun toshlardan chegara qilib qo‘yardi. Agar kimdir bu toshlarni joyidan siljitsa, qo‘shnisining ota–bobosidan qolgan yerni u o‘g‘irlayotgan hisoblanardi va bu og‘ir jinoyat edi (Qonunlar 19:14, 27:17 ga qarang).

23:7 *Chunki…hisoblaydi…* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *Chunki u o‘z ko‘nglida qanday hisob–kitob qilsa, o‘zi ham shundaydir…*. Oyatning bu qismidagi ibroniycha matnning ma’nosi bahsli.

23:10 *Qadimiy chegaralarni buzma…* — 22:28 izohiga qarang.

23:14 *do‘zax* — 1:12 izohiga qarang.

23:15 *O‘g‘lim* — 1:8 izohiga qarang.

23:17 *…Egamizdan qo‘rqib…* — 1:7 ning birinchi izohiga qarang.

23:24 *farzand* — ibroniycha matnda *o‘g‘il*.

24:5 *Dono sipohlar kuchli sipohlardan…* — qadimiy yunoncha va suryoniycha tarjimalardan. Ibroniycha matnda *Dono odam kuchlidir…* yoki *Dono sipoh kuchlidir…*.

24:13 *O‘g‘lim* — 1:8 izohiga qarang.

24:21 *…ularga qarshi bosh ko‘tarma* — yoki *…isyonchilar bilan do‘st bo‘lma* yoxud *…ularga qarshi isyon ko‘taradiganlar bilan do‘st bo‘lma*.

25:1 *Yahudo shohi Hizqiyo* — shoh Hizqiyo miloddan oldingi 716-687 yillarda Yahudoda, ya’ni janubiy shohlikda hukmronlik qilgan. Isroilni, ya’ni shimoliy shohlikni Ossuriya bosib olgandan keyin Yahudoda hukmronlik qilgan birinchi shoh Hizqiyo edi. U hukmronlik qilgan paytda Yahudoda katta ruhiy uyg‘onish bo‘lgan edi.

25:2 *Ishlarni sirli qilish — Xudoning shuhrati…* — inson Xudoning ishlarini tasavvuriga sig‘dira olmaydi. Darhaqiqat, inson zoti hamma yaratilgan narsalar ustidan Xudoning hukmronligini va nazoratini anglab yetishga ojizdir. Bu — Xudoning buyukligini va ulug‘vorligini ko‘rsatadi. Yaxshi shoh esa barcha ishlarni tekshirib, ularni qo‘l ostidagilarga va xalqiga ma’lum qiladi. Bunday shoh Xudoning xizmatkori sifatida dono va adolatli hukmdor bo‘lish uchun, Xudoning xohish–irodasini bilishga harakat qiladi.

26:23 *kumush suvi yuritilgan* — yoki *tozalanmagan kumush yuritilgan* yoxud *sirlangan*.

27:11 *o‘g‘lim* — 1:8 izohiga qarang.

27:12 *sodda* — 1:4 izohiga qarang.

27:13 *Begonaga kafillik qilganning…* — 6:1 ning ikkinchi izohiga qarang.

27:20 *O‘lim va Halokat* — ibroniycha matnda *Sheo‘l va Abaddo‘n*. 15:11 ning izohlariga qarang.

28:7 *farzand* — ibroniycha matnda *o‘g‘il*.

28:14 *...Xudodan qo‘rqqan...* — 1:7 ning birinchi izohiga qarang.

29:5 *o‘z* — yoki *uning*.

29:10 *...to‘g‘rining jonini olmoqchi bo‘ladi* — yoki *...ammo to‘g‘ri odam uning jonini qutqarishni istaydi*.

29:17 *Farzand* — ibroniycha matnda *O‘g‘il*.

29:21 *...oqibatda xo‘jayiniga qayg‘u bo‘ladi* — yoki *...oxirida u o‘g‘il bo‘lishni xohlab qoladi*.

30:1 *Yoxining o‘g‘li Ag‘urning...aytgan so‘zlari...* — ibroniycha matndan. Qadimiy yunoncha tarjimada *Yoxining o‘g‘li Ag‘urning so‘zlari: “Toliqqanman, ey Xudoyim, toliqqanman, bemajolman...*. Ibroniy qo‘lyozmalarida unlilar ishlatilmagani bois, bu oyatdagi gapning undoshlari bilan qaysi unlilar o‘qilgani va so‘zlar bo‘g‘inlarga qanday bo‘lingani aniq emas edi. Shu sababdan yunoncha tarjima ibroniychadan farq qiladi.

30:16 *Do‘zax* — 1:12 izohiga qarang.

30:27 *chigirtkalar* — ba’zan to‘da–to‘da bo‘lib kelib, dalalardagi hosilga katta zarar yetkazadigan hasharot.

30:28 *O‘rgimchak* — yoki *kaltakesak*.

30:31 *Maqtanib yuradigan xo‘roz...* — qadimiy yunoncha va suryoniycha tarjimalardan. Ibroniycha matndagi gapning ma’nosi bahsli.

30:31 *g‘olib shoh* — yoki *o‘z xalqini boshlab borayotgan shoh* yoxud *o‘z lashkarini boshlab boradigan shoh*.

30:33 *kuv* — sutni chayqatib yog‘ini olish uchun ishlatiladigan uzun yog‘och idish va yo‘g‘on sop.

31:10 10-31–oyatlar ibroniychada muvashshah usulida yozilgan she’rdir. Bu she’rning har bir oyatidagi birinchi so‘z ibroniy alifbesi tartibi bo‘yicha boshlanadi.

31:15 *topshiriq* — yoki *taom ulushi*.

31:23 *...shahar darvozasida...* — 1:21 izohiga qarang.

31:30 *Egamizdan qo‘rqadigan ayol* — 1:7 ning birinchi izohiga qarang.

VOIZ

KITOBI

Kirish

Mazkur kitob inson hayotining maqsadi va mohiyati haqida chuqur o‘ylagan donishmand Voizning* fikrlaridan iborat. Muqaddas Kitob olimlarining fikri bo‘yicha, Voiz shoh Sulaymondir. Keksa yoshga borib qolgan Voiz o‘z boshidan kechirganlariga nazar tashlab, dunyoning ishlari haqida fikr yuritadi. Uning nazarida bu dunyo inson tushunmaydigan, boshqalarga ham tushuntirish qiyin bo‘lgan masalalarga to‘ladir. Voizning ta’kidlashicha, o‘lim ortiga hech kim nazar tashlay olmaydi.

Voiz insonlarni va ularning qobiliyatlarini o‘rganib chiqadi. U inson donoligining, hatto taqvodor inson donoligining ham chegaralari bor, degan xulosaga keladi. Bu donolik bilan inson Xudoning buyuk maqsadlarini tushuna olmaydi, hayotning ma’nosini bila olmaydi, tagiga yeta olmaydi.

Voiz dunyoga nazar tashlar ekan, inson goh u narsaning, goh bu narsaning orqasidan quvganini ko‘radi. Inson dunyoni o‘ziga bo‘ysundirmoqchi bo‘lib, uning sirlarini bilishga intiladi. U go‘yo dunyodagi eng muhim qonun–qoidalarni o‘zgartira oladiganday, o‘z taqdirini hal qila oladiganday mehnat qilishdan horimaydi. Inson o‘z orzu–umidlarini ro‘yobga chiqarishga bekorga intilayotganini Voiz ko‘radi, lekin bu orzu–umidlar ham Voizning nazarida “behuda, shamolning orqasidan quvishday ekan.”

Voiz bizga hamma narsani boricha qabul qilishni o‘rgatadi. Barcha narsalarni Xudo O‘z maqsadiga ko‘ra tayin etgan, ularning hammasini, hatto insonning kamchiliklarini ham Xudo belgilagan. Shuning uchun inson sabr–toqatli bo‘lib, Xudo bergan hayotdan zavqlanishi kerak. Inson o‘z qobiliyatlarining chegaralanganini tan olishi, qurbi yetmaydigan narsalarga intilib, qayg‘ularini orttirmasligi kerak. Eng muhimi Voizning quyidagicha xulosasidir: “Xudodan qo‘rq, Uning amrlarini bajar, chunki bu hammaning burchidir. Har bir ishni, hatto yashirin qilingan ishlarni ham, yaxshi yoki yomon bo‘lishidan qat’i nazar, Xudo hukm qiladi.” (12:13-14)

1–BOB

Hayot behudadir

1 Quyidagilar Dovud o‘g‘li, Quddusda hukmronlik qilgan Voizning* so‘zlaridir.

2 “Behuda!* Behuda!
— deydi Voiz. —
Hammasi behudadir!”

3 Odam bu dunyoda qilgan mehnatidan
Qanday foyda topar?
4 Avlod kelib, avlod ketar,
Bu dunyo esa shundayligicha qolaverar.
5 Quyosh chiqib yana botar,

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

Chiqqan joyiga qaytishga shoshar.
6 Shamol janubga esar,
Shimol tarafga yelar,
Takror–takror aylanib,
O‘z yo‘lidan yuraverar.
7 Barcha daryolar dengizga oqar,
Dengiz esa hech to‘lmas,
Shunda ham o‘z makoni sari
Oqaverar daryolar.
8 Hamma narsa charchatar, holdan toydirar,
Ularni tasvirlashga so‘zlar ham yetmas.
Ko‘zlarimiz ko‘raverar, ammo to‘ymas,
Quloqlarimiz eshitaverar, ammo qoniqmas.
9 Oldin nima bo‘lgan bo‘lsa, yana sodir bo‘lgay,
Nima qilingan bo‘lsa, yana qaytarilgay,
Bu dunyoda hech qanday yangi narsa yo‘q.

10 Biror narsa bormidiki, biz bu haqda: “Qaranglar, bu yangilik–ku!” — deb ayta olsak?! U oldindan bor edi, biz tavallud topmasdan oldin ham shu yerda edi. 11 Qadimda bo‘lganlar esga olinmas, hatto bundan keyin bo‘ladiganlar ham kelajakda eslanmas.

Voizning tajribasi

12 Men, Voiz, Isroil ustidan Quddusda shohman. 13 O‘zimni donolik bilan izlanishga, mana shu dunyoda bo‘layotgan hamma ishlarni tushunishga bag‘ishladim. Xudo insonga bergan bu ish qanday qayg‘uli–a! 14 Men bu dunyoda bo‘layotgan hamma narsani ko‘rdim, qaranglar, hammasi behuda, shamolning orqasidan quvishday ekan.

15 Egri narsani to‘g‘rilab bo‘lmas,
Yo‘q narsani sanab bo‘lmas.

16 O‘zimga shunday dedim: “Mana, men buyuk bo‘lib, donolikda mendan oldin Quddusda hukmronlik qilganlarning hammasidan o‘zib ketdim. Ko‘p donolik orttirdim, ilmu ma’rifatni yaxshilab o‘rgandim.” 17 Donolik va ilm–ma’rifatning foydasi telbalik va ahmoqlikdan ustunligini anglab yetishga o‘zimni bag‘ishladim, ammo bu ham shamolning orqasidan quvishday ekanligini tushundim.

18 Qayg‘u ham ortarkan, donolik qancha ko‘p bo‘lsa,
Dard ko‘payar ekan gar bilim oshsa.

2–BOB

1 Men, Voiz, o‘zimga: “Qani, rohatlanib, bir maza qilay–chi”, — dedim, lekin bu ham behuda* ekan. 2 “Kulgi telbalik ekan, rohat qanday foyda keltiradi?” — dedim. 3 Donolik meni boshqarar ekan, ko‘nglimni sharob bilan chog‘ qilib ko‘ray–chi deb, ahmoqlikka o‘z bag‘rimni ochdim. Bu dunyoda odamlar o‘z qisqa hayotlari davomida qanday ish qilsalar ularga foyda kelishini bilmoqchi bo‘ldim. 4 Buyuk ishlar qildim: o‘zimga uylar qurdim, uzumzorlar barpo qildim, 5 polizlar va bog‘lar yaratdim, u yerlarga har xil mevali

daraxtlar ekdim. 6 O‘sayotgan daraxtlarni sug‘orish uchun hovuzlar qazdirdim. 7 O‘zim
uchun qullar va cho‘rilar sotib oldim, uyimda qul–cho‘rilar tug‘ilib, ularning soni ortib
boraverdi. Podalarim shunchalik ko‘p ediki, Quddusda mendan oldin yashagan hech
kimda bunchalik ko‘p mol–qo‘y bo‘lmagan. 8 O‘zim uchun kumushu oltin, shohlarga
loyiq ajoyib boyliklardan yig‘dim, juda ko‘p yerlarga ega bo‘ldim. Ayol va erkak
qo‘shiqchilar menga xizmat qilishar edi, menga zavq keltiradigan haramim ham katta
edi.

9 Men buyuk bo‘lib, buyuklikda Quddusda mendan oldin yashaganlarning
hammasidan o‘tdim. Donoligim menga pand bermadi. 10 O‘zim xohlagan hamma narsani
oldim, ko‘nglim istaganini qildim. Qilgan har bir ishimdan jonim rohatlandi, bu qilgan
mehnatlarim evaziga kelgan mukofot edi. 11 Ammo qarasam, o‘z qo‘llarim bilan qilgan
ishlarim, qilgan hamma mehnatim — bularning hammasi behuda ekan, shamolning
orqasidan quvishday ekan. Bu dunyoda birorta foydali narsa topilmasligini bildim.

12 Shundan keyin yana donolik, telbalik va ahmoqlikni solishtirishga qaror qildim.
Vorisim menikidan ham yaxshiroq xulosaga kela olarmidi?! 13 Yorug‘lik qorong‘ilikdan
yaxshiroq bo‘lganiday, donolik ham ahmoqlikdan yaxshiroqligini tushundim:

> 14 Dononing ko‘zi bor,
> Nodon esa qorong‘ilikda yuradi.

Ammo hammaning taqdiri bir* ekanligini ham tushundim. 15 O‘zimcha: “Nodonning
boshiga tushgan narsa mening ham boshimga tushar ekan. Shunday ekan, dono
bo‘lishning nima foydasi bor?!” deb o‘yladim. “Bu ham behuda!” — dedim. 16 Donolar
ham, nodonlar unutilgani kabi, unutiladi, kelajakda hamma birday unutiladi. Nima
uchun donolar nodonlarday o‘lishi kerak?! 17 Shuning uchun ham men hayotdan
nafratlandim, chunki bu dunyoda qilingan har bir ish menga qayg‘u keltirdi. Hammasi
behuda, shamolning orqasidan quvishdaydir.

18 Bu dunyoda mehnat qilib topgan hamma narsamdan nafratlandim, chunki
hammasi baribir mendan keyin keladiganlarga qolishini bilardim. 19 Ular dono bo‘ladimi
yoki ahmoqmi, kim biladi? Men bu dunyoda mehnat qilib, donolik bilan topganlarimga
baribir o‘shalar egalik qilishadi. Bu ham behudadir. 20 Shunda bu dunyoda qilgan barcha
mehnatim uchun yuragim achib, qayg‘ura boshladim. 21 Axir, baribir donolik, bilim va
mohirlik bilan topilgan narsalar mana shu narsalar uchun ishlamaganlarga qolar ekan.
Bu ham behuda, qanday falokat! 22 Bu dunyoda qilgan mehnati va tirishqoqligi uchun
odam qanday foyda olarkan–a?! 23 Axir, uning kunlari dardga to‘la bo‘lsa, qayg‘udan
boshi chiqmasa, hattoki kechalari ham dam ololmasa. Eh, bu ham behuda!

24 Odam uchun yeyish, ichish va qilgan mehnatidan rohatlanishdan yaxshiroq narsa
yo‘q. Bu ham Xudodan ekanligini tushundim, 25 axir, Xudosiz kim ovqat yeya oladi, kim
rohat topadi?! 26 Xudoga ma’qul bo‘lganlarga Xudoning O‘zi donolik, bilim va quvonch
beradi. Gunohkorlarga esa boylik yig‘ish ishtiyoqini beradi–yu, ularning ishlab
topganlarini olib, Xudo O‘ziga ma’qul bo‘lganlarga ato etadi. Gunohkorlarning bu ishlari
ham behuda va shamolning orqasidan quvishdaydir.

3–BOB

Har narsaning vaqti bor

1 Bu dunyoda hamma narsaning oʻz tayinlangan payti bor, har bir ishning oʻz vaqti
bor*.

2 Tugʻilishning ham, oʻlishning ham oʻz vaqti bor.
Ekishning ham, ekilganni oʻrishning ham oʻz vaqti bor.
3 Oʻldirishning ham, shifo berishning ham oʻz vaqti bor.
Buzishning ham, qurishning ham oʻz vaqti bor.
4 Yigʻlashning ham, kulishning ham oʻz vaqti bor.
Azaning ham, raqsning ham oʻz vaqti bor.
5 Tosh otishning ham, tosh yigʻishning ham oʻz vaqti bor.
Bagʻriga bosishning ham, undan oʻzini tiyishning ham oʻz vaqti bor.
6 Qidirishning ham, yoʻqotishning ham oʻz vaqti bor.
Saqlab qoʻyishning ham, tashlab yuborishning ham oʻz vaqti bor.
7 Yirtishning ham, tikishning ham oʻz vaqti bor.
Sukut saqlashning ham, soʻzlashning ham oʻz vaqti bor.
8 Yaxshi koʻrishning ham, nafratning ham oʻz vaqti bor.
Urushning ham, tinchlikning ham oʻz vaqti bor.

9 Shuncha mehnat qilib inson qanday foyda topadi? 10 Insonlar qilishi uchun Xudo
bergan mushkul ishni koʻrdim. 11 Xudo aytgani boʻyicha hamma narsa oʻz vaqtida sodir
boʻladi. Xudo yuragiga solgani uchun inson vaqt oʻtishini sezadi, lekin Xudo boshidan
oxirigacha qilgan ishlarni inson tushuna olmaydi. 12 Inson uchun baxtli hayot kechirish,
oʻz hayotidan rohatlanishdan boshqa yaxshiroq narsa yoʻq ekanligini tushunib yetdim.
13 Hamma yeb, ichib, oʻz qilgan mehnatining rohatini koʻrsin. Bu Xudoning inʼomidir.
14 Xudo qilgan har bir ish to abad oʻzgarmas, bu ishga hech narsa qoʻshib boʻlmaydi,
undan hech narsani ayirib boʻlmaydi. Xudo bu ishlarni, hamma Mendan qoʻrqsin, deb
qildi. 15 Hozir nima boʻlsa, oldin ham boʻlgan, kelajakda boʻladigani hozir ham bordir. Oʻz
vaqtida Xudo oʻtmishni yana qaytarar.

Dunyodagi adolatsizlik

16 Men yana bu dunyoda adolat hukm surishi kerak boʻlgan joyda — qozixonada
ham, toʻgʻrilik oʻrnida ham egrilik koʻrdim. 17 Oʻzimga: “Yaxshini ham, yomonni ham
Xudo hukm qiladi, chunki Xudoning Oʻzi har bir narsaning, har bir ishning vaqtini
belgilagan”, dedim. 18 Men yana odamzod haqida shuni tushundim: “Insonlar ham xuddi
hayvonlarday ekan. Shuni koʻrsatish uchun Xudo insonlarni sinar ekan.” 19 Axir, odamlar
bilan hayvonlarning taqdiri bir xil, unisi ham bunisi ham oʻladi. Insonlarga ham,
hayvonlarga ham Xudo jon* bergan, odamlar hayvonlardan ustun emas. Hammasi
behuda* ekan. 20 Hamma bitta joyga boradi, tuproqdan yaralganlar tuproqqa qaytadi.
21 Insonning ruhi tepaga chiqadimi, hayvonlarning ruhi* pastga — yerning ostiga
tushadimi, kim biladi?! 22 Shunda men tushundim: inson uchun oʻz mehnatidan rohat
olishdan boshqa yaxshiroq narsa yoʻq ekan, chunki bu uning taqdiri. Inson oʻtib
ketgandan keyin nima boʻlishini kim unga koʻrsata oladi?!

4–BOB

1 Men yana bu dunyoda bo‘layotgan zulmni ko‘rdim. Mana ezilganlarning ko‘z
yoshlari, lekin ularning yupatuvchisi yo‘q. Ularga zulm qilayotganlarida kuch bor,
ezilganlarning esa yupatuvchisi yo‘q. 2 Shunda men: “Marhumlar tiriklardan
baxtliroqdir”, dedim. 3 Ammo hali tug‘ilmaganlar marhumlardan ham baxtliroqdir,
chunki ular bu dunyoda qilinayotgan qayg‘uli ishlarni ko‘rmaganlar.
4 Men yana bir narsani ko‘rdim: inson hamma ishni mohirlik bilan qiladi, lekin bu
ishni birovga g‘ayirlik bilan qilsa, bu ham behuda*, shamol orqasidan quvishdaydir.
Ammo:

5 Nodon qo‘llarini qovushtirib o‘tirib o‘zini o‘zi xarob qiladi.
6 Vaqtni yelga sovurib, mashaqqatli mehnat bilan ikki hovuch narsaga erishish
mumkin,
Lekin xotirjamlik bilan bir hovuch narsaga ega bo‘lish undan afzalroqdir.

7 Bu dunyoda yana bir behudalikni ko‘rdim. 8 Mana, bir kishi — yolg‘iz, uning
farzandlari ham, aka–ukalari ham yo‘q. U tinim bilmay mehnat qiladi, ko‘zi esa boylikka
to‘ymaydi. U: “Kim uchun ishlayapman, nima uchun o‘zimni rohat qilishdan
qisyapman?!” demaydi. Bu ham behudadir, qayg‘uli ishdir.
9 Ikki kishi bir kishidan ko‘proq ish bajara oladi, ular o‘z mehnatlari uchun yaxshi
taqdirlanadilar. 10 Agar bittasi yiqilsa, ikkinchisi turg‘izadi, lekin yolg‘iz bo‘lganning
ahvoli chatoqdir, u yiqilsa, turg‘izishga yonida hech kim bo‘lmaydi. 11 Ikki kishi birga
yotsa, sovuq qotmaydilar, agar kishi bir o‘zi yotsa qanday qilib isinadi?! 12 Kishi bir o‘zi
bo‘lsa, uni yiqitish oson, lekin ikki kishi o‘zlarini himoya qila oladi. Uchta ipdan eshilgan
arqonni uzish qiyindir.
13 Qari, maslahatga quloq solmaydigan nodon shohdan kambag‘al, lekin dono bo‘lgan
yigit yaxshiroqdir. 14 Shunga o‘xshash bir yigit o‘z yurtida kambag‘al bo‘lib tug‘ilib,
qarzini to‘lay olmay qamoqqa tushib qolishi mumkin. Lekin qamoqdan chiqqandan
keyin* kelajakda shoh bo‘lishi ham mumkin. 15 Shohning vorisi bo‘lgan o‘sha yigitni
qo‘llab–quvvatlashga tayyor bo‘lgan, mana shu dunyoda yashayotganlarni ko‘rdim.
16 Unga ergashganlar son–sanoqsiz bo‘lib ketishi, uning obro‘si ortishi mumkin. Shunday
bo‘lsa ham, kelajak avlod uni rad qiladi. Ha, bu ham behuda ekan, shamolning orqasidan
quvishday ekan.

Shoshqaloqlik bilan va’da bermang

17 Xudoning uyiga borganda qadamingizni o‘ylab bosing. Nodonlarday harakat
qilmasdan, aksincha, quloq solish uchun boringlar. Nodonlar Xudoga o‘ylamasdan
qurbonlik keltiradilar*. O‘ylamasdan, beparvolik bilan qurbonlik keltirish fosiqlik
ekanligini esa tan olmaydilar.

5–BOB

1 Hech qachon gapirishga shoshilma, qalbingda Xudoga va’da berishga xovliqma.
Xudo samoda, sen esa yerdasan, shuning uchun kamgap bo‘lgin.

2 Tashvish ko‘p bo‘lganda, puch niyatlar ham ko‘payadi,

Ko‘p gapirganda, og‘izdan ahmoqona so‘zlar chiqadi.

3 Xudoga nazr ataganingdan keyin uni bajarishni orqaga surmagin. U nodonlarni
yoqtirmaydi. Albatta va’dangda turgin. 4 Va’da berib, uni bajarmaslikdan ko‘ra, umuman
va’da bermaslik yaxshiroqdir. 5 Shunday paytda tiling seni gunohga yetaklamasin.
Ruhoniyga*: “Nazr atab, xato qildim”, deb aytmagin. Shunday deb Xudoning qahrini
keltirsang, o‘z qo‘llaring bilan qilgan ishlaringni Xudo buzib tashlashi mumkin. 6 Puch
niyatlaru ko‘p gapirish behuda* oqibatlarga olib boradi. Shunday qilish o‘rniga Xudodan
qo‘rqqin.

Hayot behudadir

7 Agar kambag‘allarga zulm qilinayotganini, adolat va haqiqat yo‘qligini ko‘rsang,
hayron bo‘lmagin, har bir amaldorning ustidan undan ham kattarog‘i bor, ularning
ustidan yana ham kattarog‘i bordir. 8 Hammasi, hatto shoh ham, dalaning hosiliga ko‘z
tikib, ulush talab qilib oladi.
9 Pulga ruju qo‘ygan hech qachon pulga, boylikni yaxshi ko‘rgan esa boylikka
to‘ymaydi. Bu ham behudadir. 10 Buyum, narsalar ko‘payganda, ularni ishlatib
yuboradiganlar ham ko‘payadi. Boylikning egasi faqat o‘z boyligiga termulib qarashdan
boshqa yana qanday foyda topadi?! 11 Mehnatkashlar kam yesa ham, ko‘p yesa ham
tinch uxlaydi, boylar esa boyligi ko‘pligidan xavotirlanib uxlay olmaydi.
12 Bu dunyoda shunday bir qayg‘uli fojia ko‘rdim: yig‘ilgan boylik egasiga zarar
keltiradi, 13 ya’ni o‘sha boylik qandaydir omadsizlik tufayli yo‘qoladi. O‘z bolalariga
qoldirish uchun esa boy odamning hech narsasi bo‘lmaydi. 14 Onadan qanday tug‘ilgan
bo‘lsa, shundayligicha bu dunyodan ketadi, qilgan mehnatlarining mevalaridan
birortasini qo‘llarida olib keta olmaydi. 15 Bu ham qayg‘uli fojiadir: inson qanday kelgan
bo‘lsa, shundayligicha ketadi, shamol uchun mehnat qilib qanday foyda topadi? 16 Butun
umrini qorong‘ilikda o‘tkazadi, qayg‘u–alam, g‘azab va xastaliklar bilan yashaydi.
17 Mana, men bir narsani tushundim: inson uchun Xudo bergan qisqa umri davomida
yeyish, ichish va bu dunyoda qilgan o‘z mehnatidan zavqlanish yaxshi ekan, chunki bu
insonning taqdiridir. 18 Xudo kimga boylik va mulk berib, unga mana shu narsalardan
rohatlanishga imkoniyat ham bersa, insonga o‘z qilgan mehnatidan mamnun bo‘lib,
undan zavqlanishiga yo‘l bersa, mana shu Xudoning in’omidir. 19 Bunday inson hayoti
haqida qayg‘urmaydi ham, chunki Xudo uning qalbini zavqlanish bilan band qiladi.

6–BOB

1 Bu dunyoda shunday bir fojiani ko‘rdim, u inson zotini toshday bosib turadi: 2 Xudo
ba’zilarga boylik, mulk va obro‘ beradi, bu insonlar ko‘ngli xohlagan narsaga ega bo‘ladi.
Lekin Xudo ularga bu narsalardan zavq olishga yo‘l bermasa, bir begona bu narsalarning
rohatini ko‘radi. Bu behuda*, qayg‘uli fojiadir. 3 Inson yuzta farzandli bo‘lishi ham
mumkin, uzoq umr ko‘rishi ham mumkin, lekin u qancha ko‘p yashasa ham, mana shu
hayotning rohatini ko‘rmasa yoki hurmat bilan ko‘milmasa, menimcha, o‘lik tug‘ilgan
bolaning taqdiri unikidan yaxshiroqdir. 4 Bu bola behuda dunyoga kelib, olamdan o‘tadi.
Hech kim uni bilib tanimaydi. 5-6 U quyosh yuzini ko‘rmagan, hayot nimaligini bilmagan.
Shunday bo‘lsa ham, ikki ming yil yashab hayotning rohatini ko‘rmagan kishidan ko‘ra,
ko‘proq o‘sha bola orom oladi. Baribir hamma bir joyga* boradi–ku!

7 Insonning barcha mehnatiyu intilishlari o‘z qornini to‘ydirish uchundir, shunda
ham u hech qachon qoniqmaydi. 8 Donolarning nodonlardan qanday ustunligi bor?
Kambag‘allar bu hayotni uddalab yashashga aqllari yetsa ham, ularga bundan nima
foyda bor?! 9 Odamning ko‘zi oldida turgan narsa dilda havas qilib yurgan narsadan
yaxshiroqdir. Doimo mol–mulkim ko‘paysin, deb havas qilish behudadir, shamolning
orqasidan quvishdaydir.

Hamma narsani Xudo belgilaydi

10 Dunyoda nima bo‘lsa, hammasi allaqachon belgilangan, insonning taqdiri ham
ma’lum, hech bir kishi hammadan kuchli bo‘lgan Xudo bilan bahslasha olmaydi.
11 Qancha ko‘p bahslashsang, shuncha behudadir, senga hech qanday foydasi yo‘q.
12 Hayot yelday o‘tib ketar*, inson uchun nima yaxshiligini kim biladi?! Xudo hayotimizni
o‘tib ketadigan soyadek qilib qo‘ygan, kim ham bizga kelajakda nima bo‘lishini aytib
bera olardi?!

7–BOB

Donolarning maslahati

1 Yaxshi nom qimmatbaho xushbo‘y moydan*, o‘lim kuni esa tug‘ilgan kundan
yaxshiroqdir.
2 To‘y bo‘layotgan uyga borishdan ko‘ra, azador xonadonga borish yaxshiroq, chunki
hammaning taqdiri bir, hayot bo‘lganlar buni unutmasinlar.
3 Qayg‘u kulgidan yaxshiroqdir, qayg‘uli yuz yurakka yaxshi.
4 Dononing qalbi azador uydagilar bilandir, nodon esa doimo xursandchilik haqida
o‘ylaydi.
5 Dono odamning tanbehini eshitish nodonning maqtovlaridan yaxshiroq, 6 chunki
nodonning maqtov kuyi qozonning ostida yonib turgan yantoqning chirsillashiga
o‘xshaydi. Ammo bu ham behuda*, chunki 7 do‘q–po‘pisa dononi ham telba qiladi, pora
esa yurakni egri qiladi.
8 Hamma narsaning oxiri — boshidan, sabr–toqat — mag‘rurlikdan yaxshiroqdir.
9 Jahldor bo‘lmagin, chunki jahl nodonlarning yuragida uy quradi.
10 “Nima uchun o‘tmish kunlar hozirgilardan yaxshiroq edi?” deb so‘ramagin, bu
savolni so‘rash donolikdan emas.
11 Donolik xuddi meros kabi yaxshidir, bu dunyoda hayot bo‘lganlarga foydalidir.
12 Donolik ham, pul kabi, vaqtinchalik orom beradi, donolik hayotga chidashga yordam
beradi, ilm–ma’rifat foyda keltiradi.
13 Xudo qilgan ishlarga qaragin, U egri qilgan narsalarni kim ham to‘g‘rilay olardi?!
14 Baxtli kunlaringda quvongin, qayg‘uli kunlaringda esa shuni esingda tut, quvonchni
ham, qayg‘uni ham Xudo yaratgan. Hech kim kelajakda nima bo‘lishini aytib bera
olmaydi*.

Inson donoligining me’yori

15 Mana shu behuda hayotim davomida hamma narsani ko‘rdim. Solih insonlar solih
bo‘lsalar ham halok bo‘ladilar, fosiqlar esa o‘z fosiqliklari bilan uzoq umr ko‘radilar.
16 Qonunparast bo‘lma, donolikingga juda ham ishonaverma*, nima uchun o‘zingni
o‘zing halok qilishing kerak?! 17 Ammo shakkok yoki ahmoq ham bo‘lmagin, nima uchun

ajaling yetmay turib vafot etishing kerak?! 18 Bu nasihatlarning birini tutib, ikkinchisini unutma. Xudodan qo‘rqqan ikkisini ham esda tutadi.

19 Donolik insonni shahardagi o‘nta hukmdordan qudratliroq qiladi. 20 Lekin bu dunyoda har doim solihlik qilib, umuman gunoh qilmaydigan inson yo‘qdir.
21 Xizmatkoring seni yomonlayotganini eshitib qolmasliging uchun odamlar gapirayotgan hamma narsaga ham e’tibor beravermagin. 22 O‘zing bilasan, sen o‘zing ham boshqalarni juda ko‘p yomonlagansan–ku!

23 Bularning hammasini donoligim bilan sinab ko‘rdim, o‘zimga: “Donolikka erishaman”, dedim, lekin unga yeta olmadim. 24 Hamma sodir bo‘ladigan narsalarning ma’nosi juda chuqur, yetib bo‘lmasdir. Kim ham uni topa olardi?! 25 Shunda men donolikni qidirib topishga, har bir sodir bo‘lgan narsani tushunishga o‘zimni bag‘ishladim. Fosiqlik nodonlik ekanligini, ahmoqlik telbalik ekanligini o‘z hayotimda isbotlamoqchi bo‘ldim. 26 Men mana bu narsani bildim. Ahmoqlik bir ayolga o‘xshaydi. U o‘zi tuzoq, yuragi to‘r, qo‘llari esa zanjirdaydir. U o‘limdan ham achchiqroq ekan. Xudoga ma’qul keladigan ishlarni qiladiganlar undan qocha oladilar, lekin gunohkor uning qo‘llariga tushadi.

27-28 Voiz* shunday dedi: “Bekorga har bir sodir bo‘lgan narsaning ma’nosini qidirib (bu ma’noni juda sinchkovlik bilan izlagan bo‘lsam ham), mana shu narsani tushunib yetdim: minglar orasida bitta solih kishini topdim, shularning orasidan bitta ham solih ayol topa olmadim. 29 Ammo bir narsani angladim, qarang, Xudo insonlarni to‘g‘ri qilib yaratgan, lekin ular har xil qabih rejalar tuzadi.”

8–BOB

Shohga itoat etinglar

1 Kim dono kishiga o‘xshaydi? Kim biror narsaning ma’nosini biladi?

Donolik kishining yuzini yashnatadi,
Yuz qattiqligini yumshatadi.

2 Xudoga bergan qasamingni bajarganingday, shohning ham amriga itoat qil*. 3 Uning oldida qo‘rqib turavermasdan, borib aytganini qil. Yomon ishlarning tarafdori bo‘lma, chunki shoh o‘zi xohlagan ishni qiladi. 4 Shohning so‘zi e’tiborlidir, hech kim unga: “Nima qilyapsiz?” — deb ayta olmaydi. 5 Farmonlarga itoat qilganlarga zarar yetmaydi.

Dono kishi hamma narsaning, hatto hukmning ham o‘z vaqti borliginiyu 6 insonning qilgan yovuzliklari uni toshdek bosib turishini biladi. 7 Dono kishi yana shuni biladi: hech kim kelajakda nima bo‘lishini, qachon sodir bo‘lishini bilmaydi. 8 Hech kimning shamolni* ushlashga kuchi yetmaganiday, o‘lim kunini orqaga surishga ham hech kimning kuchi yetmaydi. Jangchi o‘rniga birovni qo‘yib, urushdan qocha olmaganday, fosiqlar ham fosiqlikdan qochib qutulolmaydi.

Fosiqlar va solihlar

9 Bu dunyoda bo‘layotgan hamma narsa haqida chuqur o‘ylab, bularning hammasini ko‘rdim, bir kishi ikkinchisining ustidan zulm o‘tkazib, hukmronlik qiladigan bir zamon bu. 10 Yana shu narsani ko‘rdim, fosiq kishining jasadi muqaddas joydan olib chiqildi. Orqasidan olomon borardi, o‘sha fosiq kishi hurmat bilan ko‘mildi. Solihlarning jasadlari

esa sochilib yotardi. Bu ham behudadir*.
11 Jinoyatga tez jazo berilmagani uchun insonlarning yuragi yovuzliklar qilishga
doim tayyor. 12-13 Gunohkorlar yuz marta jinoyat qilsalar ham, uzoq umr ko‘rishlari
mumkin. Ha, “Xudodan qo‘rqadiganlarga undan ham yaxshiroq bo‘ladi, chunki ular
Xudodan qo‘rqadilar. Fosiqlarga esa yaxshi bo‘lmaydi, hayotlari soyaday tez o‘tib ketadi,
chunki ular Xudodan qo‘rqmaydilar” degan gapni bilaman. 14 Qaranglar–a, bu dunyoda
mana shunday bema’ni* narsalar ham sodir bo‘ladi, solihlar fosiqlarga loyiq bo‘lgan
jazoni oladilar, fosiqlarga esa xuddi solihlarday munosabatda bo‘ladilar. Men: “Bu ham
behudadir”, — dedim.
15 Shuning uchun men bu hayotdan rohat olishni maslahat beraman. Bu dunyoda
odamlarga yeyish, ichish va xursand bo‘lishdan boshqa yaxshiroq narsa yo‘qdir. Xudo
insonga bergan bu dunyodagi hayoti davomida qiladigan mehnatida shodlik u bilan
bo‘ladi.
16-17 Donolikni bilishga, yer yuzida bo‘layotgan ishlarni o‘rganishga o‘zimni
bag‘ishladim. Xudoning hamma ishlarini ko‘rdim, haqiqatan ham hech kim bu dunyoda
Xudo nima qilayotganini tushunmaydi. Hatto uyqudan voz kechib ham, qancha harakat
qilmaylik, bilolmaymiz, ma’nosini topa olmaymiz. Donolar: “Bilamiz”, deb aytadi, ammo
ular ham haqiqatan tushunmaydilar.

9–BOB

1 Bularning hammasini yuragimga joylab, ular haqida yaxshilab o‘yladim: solihlar
ham, donolar ham, ularning ishlari ham Xudoning qo‘lida ekan, hatto ularning sevgisi
ham, nafrati ham Xudoning qo‘li ostida ekan. Hech kim kelajakda nima bo‘lishini
bilmaydi. 2 Hammaning taqdiri bir xil, solihning ham, fosiqning ham, yaxshining ham,
yomonning* ham, halolning ham, haromning ham, qurbonlik qiladiganlarning ham,
qurbonlik qilmaydiganlarning ham taqdiri birdir. Gunohkorlarga nima bo‘lsa,
yaxshilarga ham shunday bo‘ladi, xudojo‘ylik bilan nazr qiladiganlarning ham, chin
ko‘ngildan nazr qilmaydiganlarning ham qismati bir. 3 Bu dunyoda bo‘layotgan hamma
ishlarning qayg‘uliligi shundadir: hammaning taqdiri bir xil. Shuning uchun hammaning
yuragi g‘azabu alamga to‘la, hayotliklarida yuragi telbalik bilan to‘la. Keyin esa ular bu
olamdan o‘tadilar. 4 Lekin hayot bo‘lganning umidi bor, axir: “Tirik it o‘lik sherdan
yaxshiroq”, — deyishadi–ku. 5 Hayot bo‘lganlar hech bo‘lmasa o‘lishlarini biladilar,
marhumlar esa hech narsani bilmaydilar. Marhumlar uchun hech qanday mukofot yo‘q,
vaqti kelib hech kim ularni yodga ham olmaydi. 6 Ular sevgan, nafratlangan va jon
kuydirgan narsalarning hammasi o‘tib ketgan. Bundan keyin ular hech qachon bu
dunyoda bo‘layotgan narsalarga qo‘shila olmaydilar.
7 Marhamat, noningizni shodlik bilan yeyavering, sharobingizni quvnoq yurak bilan
ichavering, chunki Xudo shunday qilishingizni ma’qul ko‘rgan. 8 Kiyimlaringiz har doim
oppoq bo‘lsin, boshingizdan xushbo‘y moy arimasin. 9 Bu dunyodagi sizga berilgan umr
davomida o‘z sevgan xotiningiz bilan tez o‘tib ketadigan* bu hayotdan zavqlaning.
Hayotingiz va dunyoda qiladigan mehnatlaringiz davomida sizga shunday imkoniyatni
Xudo bergan. 10 Nima qilsangiz ham bor kuchingiz bilan qiling, chunki siz borayotgan joy
— o‘liklar diyorida* hech qanday ish, fahm–idrok, ilm–ma’rifat yoki donolik yo‘qdir.
11 Men yana bir narsani tushundim, bu dunyoda:

Musobaqada g‘alaba doimo tez yugurganga,
Jangda g‘alaba doim kuchliga nasib etmas ekan.
Mol–mulk doimo donoga,
Boylik ham doim uddaburonga nasib etmas ekan.
Muvaffaqiyat doimo bilimdonga kelavermas ekan.

Ha, kuni kelib, hammaning ham omadi ketadi. 12 Kulfat qachon kelishini hech kim
bilmaydi. To‘rga tushib qolgan baliq va tuzoqqa ilingan qushlarday, insonlar ham
boshlariga kulfat tushganda birdaniga tutilib qoladilar.

Donolik va nodonlik haqida o‘ylar

13 Bu dunyoda men donolik haqida quyidagi berilgan namunani ko‘rdim. Menimcha
bu juda ham muhim edi. 14 Kichkina bir shaharcha bo‘lgan ekan, unda yashovchilarning
soni ham ko‘p emas ekan. Bir qudratli shoh bostirib kelib, mana shu shaharchani
qurshovga olibdi. Shaharchani qo‘lga kiritish uchun katta tayyorgarliklar ko‘rib, baland
qurilmalar yasabdi. 15 Bu shaharda bir kishi yashar ekan. O‘zi kambag‘al, lekin dono
ekan. U o‘zining donoligi bilan shaharni qutqarib qolishi mumkin edi, lekin bu kambag‘al
kishini hech kim esga olmadi*. 16 Men o‘zimga: “Donolik qudratdan yaxshiroq bo‘lsa
ham, kambag‘al kishining donoligini hech kim qadrlamaydi, uning so‘zlariga quloq
solmaydi”, dedim. 17 Shunday bo‘lsa ham,

Dono kishining xotirjamlik bilan aytgan so‘zlari nodon hukmdorning baland ovoz
bilan aytgan so‘zlaridan afzalroqdir.
18 Donolik urush qurollaridan yaxshiroqdir, lekin bir befarosat ko‘p yaxshilarni
buzadi.

10–BOB

1 O‘lik pashshalar xushbo‘y moyni sasitib yuboradi, shuningdek, ozgina ahmoqlik
ko‘p donolikdan og‘irroq chiqadi.
2 Dononing yuragi o‘ngga — to‘g‘ri ishlarni qilishga, nodonniki esa chapga —
fosiqlikka tortadi. 3 Ahmoqlar aqli yetmay, qilgan qiliqlari bilan ham hammaga
ahmoqligini ko‘rsatadi.
4 Agar hukmdorning sendan jahli chiqsa, joyingni tashlab ketmagin, chunki
vazminlik tufayli xafagarchiliklar ham bosilib ketadi.
5 Mana men bu dunyoda ko‘rgan fojia, hukmdordan boshlangan katta xato:
6 ahmoqlar baland lavozimga ko‘tariladi, boylar esa pastda o‘tirishadi. 7 Men yana shuni
ko‘rdim: zodagonlar xuddi qullarday piyoda yurganda, qullar otda yurardi.
8 Chuqur qaziganning o‘zi unga tushishi, devorni buzganni esa ilon chaqishi mumkin.
9 Tosh kesgan o‘ziga zarar yetkazishi, xoda yorgan esa og‘riqqa duchor bo‘lishi mumkin.
10 Agar bolta o‘tmas bo‘lsa–yu, uni o‘tkirlamasang, uni ishlatish uchun ko‘proq kuch
kerak bo‘ladi. Mana, donolikdan qanday foyda bor ekan. 11 Ammo ilon o‘ynatilmasdan
oldin chaqib olsa, ilon o‘ynatuvchiga donishmandlikning nima foydasi bor?!
12 Donolarning so‘zlari ularga hurmat keltiradi, nodonlarning so‘zlari esa o‘zlarini
halok qiladi. 13 Ularning so‘zlari ahmoqlik bilan boshlanib, g‘irt telbalik bilan tugaydi,
14 shunda ham ahmoqlar gapiraveradilar. Hech kim nima bo‘lishini bilmaydi, kim bizga

kelajakni aytib bera oladi?! 15 Nodonning harakatlari uni juda charchatadi, chunki u
shunchalik ahmoqki, shaharga boradigan yo‘lni ham qayta topa olmaydi.
16 Ey shohi yosh bo‘lgan, hukmdorlari ertalabdan ziyofat qiladigan yurt, senga afsus–
nadomatlar bo‘lsin. 17 Shohi asilzoda bo‘lgan, hukmdorlari mayxo‘rlik uchun emas, kuch
to‘plash uchun o‘z vaqtida ziyofat qiladigan yurt baxtlidir.

18 Dangasalikdan uyning tomi cho‘kadi,
Yalqovlik tufayli tomdan chakki o‘tadi.
19 Ziyofat berilganda ko‘ngil shodlikka to‘ladi,
Sharob insonni xushnud etadi.
Lekin ikkalasi uchun ham pul kerak.

20 Hatto sirdosh do‘stlaring orasida ham shohni la’natlama, o‘z yotoqxonangda ham
boylarni yomonlama. Yaxshi gapning ham, yomon gapning ham qanoti bordir.
Osmondagi qush so‘zlaringni yetkazib borishi mumkin.

11–BOB

Dono kishining ishlari

1 Noningni suvga tashla, bir necha kundan keyin uni yana topasan. 2 Bu dunyoda
qanday kulfat kelishini bilmaysan, shuning uchun narsalaringni yetti, hatto sakkiz
kishiga bo‘lib bergin*.
3 Bulutlar to‘lganda, yerga yomg‘ir yog‘adi, daraxt shimol tomonga yoki janub
tomonga yiqilsa ham, o‘sha yiqilgan joyida yotaveradi. 4 Shamolni ko‘rib qo‘rqqan hech
qachon urug‘ ekmaydi, yomg‘irdan xavfsirab, bulutni kuzatgan hech qachon hosil
o‘rmaydi. 5 Onaning bachadonidagi bolaga qanday qilib jon* kirishini bilmaganingdek,
hamma narsani sodir qiladigan Xudoning ishlarini bilmaysan. 6 Urug‘laringni ertalab
ekkin, kechqurun ham qo‘llaring bo‘sh o‘tirmasin, chunki sen qaysi biri — unisimi yoki
bunisimi yaxshi o‘sishini bilmaysan, balki ikkalasi ham yaxshi o‘sar.

Yoshlarga maslahat

7 Yorug‘lik lazzatlidir, quyoshni ko‘rish ko‘zlar uchun ham yoqimlidir. 8 Uzoq yillar
yashaydiganlar ham har bir yashagan kunlaridan zavq olsin, hali ko‘p qorong‘ilik kunlari
bo‘lishini esda tutsin. Hamma keladigan narsalar yelday o‘tib ketadi*. 9 Ey yigit,
yoshligingda rohatlan, yuraging seni zavqlantirsin. Ko‘ngling orzu qilgan, ko‘zlaring
xohlagan ishni qilgin, lekin bilib qo‘y, har bir qilgan ishing uchun Xudo seni hukm qiladi.
10 Qayg‘urmagin, tanang og‘riqni bilmasin, chunki yoshlik, hayot tongi yelday tez o‘tib
ketadi.

12–BOB

1 Yoshligingda, qayg‘uli kunlar kelishidan oldin Yaratganni yodda tut, shunday yillar
keladiki, sen: “Bu vaqt menga hech qanday rohat keltirmaydi”, — deysan. 2 Hayotingning
o‘sha yillarida:

Quyosh, yorug‘lik, oy va yulduzlar qorayar,
Yomg‘irli bulutlar o‘tib ketmas.

3 Seni himoya qilgan qo‘llaring qarilikdan qaltirar,
Kuchli oyoqlaring zaiflashar,
Tishlaring kamligidan chaynay olmassan,
Ko‘zlaring yaxshi ko‘rmaydigan bo‘lib qolar.
4 Quloqlaring ham ko‘chada bug‘doy yanchilayotganiniyu
Ashulachilar ovozini eshitolmaydigan darajada kar bo‘lib qolar.
Qushlarning ovozi esa seni uyg‘otib yuborar.
5 Balandliklardan qo‘rqadigan bo‘lib qolarsan,
Ehtiyotkorlik bilan qadam tashlarsan.
Sochlaring gulga kirgan bodom daraxtiday oppoq bo‘lib qolar,
Turib yurishga qiynalarsan,
Belingning quvvati ketib sudralib yurarsan.
Har bir inson dunyodan o‘tganday, sen ham vafot etarsan,
Azadorlar ko‘chalarni to‘ldirarlar.
6 Kumush zanjir uzilar,
Hayotning tilla chirog‘i tushib ketib, buzilar.
Buloq boshidagi suv ko‘zasi sinib ketar,
Quduqning arqoni uzilib ketar.
7 Sening o‘tkinchi tanang
Yerning tuprog‘iga qaytar,
Xudo bergan ruhing* ham
Uning O‘ziga qaytar.

8 “Behuda!* Behuda!
— deydi Voiz*. —
Hammasi behudadir!”

Xulosa

9 Voiz dono odam edi. U o‘z bilganlarini odamlarga o‘rgatdi, sabr–toqat bilan hikmatlarni o‘rganib, ularni to‘g‘rilab yozdi. 10 Voiz ma’qul keladigan so‘zlar topishga harakat qilib, haqiqat so‘zlarini ochiq yozdi.

11 Donolarning hikmatlari o‘tkir tayoqqa o‘xshaydi, hikmatli so‘zlar mahkam qoqilgan mixlarga o‘xshaydi. Bularning hammasini barchamizning Cho‘ponimiz bergan.
12 Bulardan boshqa nasihatlarga ehtiyotkorlik bilan qaragin, bolam*.

Ko‘p kitob yozishning oxiri yo‘q,
Ko‘p o‘qish odamni charchatadi.

13 Hamma narsa aytildi, mana endi xulosa: Xudodan qo‘rq, Uning amrlarini bajar, chunki bu hammaning burchidir. 14 Har bir ishni, hatto yashirin qilingan ishlarni ham, yaxshi yoki yomon bo‘lishidan qat’i nazar, Xudo hukm qiladi.

IZOHLAR

Voiz — o‘zbek tilida bu so‘z bilimdon, donishmand insonni bildirib, uning hikmatlari va chuqur mazmunli naqllari ko‘pchilikka ibrat bo‘ladi. Shubhasiz, voizlar keng omma orasida katta obro‘–e’tiborga sazovordirlar. 1:1 izohiga qarang.

1:1 *Voiz* — ibroniycha matnda *Qohelet* (shu bobning 2, 11, 12–oyatlarida ham bor). Ba’zilar bu ibroniycha so‘zni atoqli ot deb aytadilar, ammo bu so‘z jamoa yetakchisi yoki notiq lavozimini bildirishi ham mumkin. Mazkur kitobda ushbu so‘z nihoyatda donishmand, donolik haqida ko‘p hikmatlar yiqqan va ularni o‘rganib chiqqan kishiga nisbatan ishlatilgan (yana “Kirish”dagi izohga qarang). Keng tarqalgan qarashlarga ko‘ra, Voiz shoh Sulaymondir.

1:2 *Behuda* — ibroniycha matnda *hevl*, so‘zma–so‘z tarjimasi *nafas* (shu bobning 14–oyatida ham bor). Bu taqlidiy so‘z bo‘lib, nafas chiqarganda hosil bo‘ladigan tovushga o‘xshaydi. Bu so‘z mana shu kitobda ma’nisiz tuyulgan yoki inson aqli yetmaydigan, ishonchsiz, o‘tkinchi narsalarga va hodisalarga nisbatan ishlatilgan.

2:1 *behuda* — ibroniycha matnda *hevl*, so‘zma–so‘z tarjimasi *nafas* (shu bobning 11, 15, 17, 19, 21, 23, 26–oyatlarida ham bor). 1:2 izohiga qarang.

2:14 *…hammaning taqdiri bir…* — ya’ni hamma o‘ladi (yana 3:19 ga qarang).

3:1 *Bu dunyoda…o‘z tayinlangan payti bor…o‘z vaqti bor* — ya’ni Xudo dunyoda sodir bo‘ladigan har bir hodisaning o‘z vaqtini belgilab qo‘ygan.

3:19 *jon* — bu o‘rindagi ibroniycha so‘z *ruh* va *shamol* ma’nolarini ham ifodalaydi.

3:19 *behuda* — ibroniycha matnda *hevl*, so‘zma–so‘z tarjimasi *nafas*. 1:2 izohiga qarang.

3:21 *…ruh…ruh* — bu o‘rindagi ibroniycha so‘z *nafas* va *shamol* ma’nolarini ham ifodalaydi.

4:4 *behuda* — ibroniycha matnda *hevl*, so‘zma–so‘z tarjimasi *nafas* (shu bobning 7, 8, 16–oyatlarida ham bor). 1:2 izohiga qarang.

4:14 *…qarzini to‘lay olmay qamoqqa tushib qolishi mumkin. Lekin qamoqdan chiqqandan keyin…* — ibroniycha matnda *…qamoqdan chiqqandan keyin…*. Kambag‘allar o‘zlarining yo ota–onasining qarzlarini to‘lay olmagani uchun yoki siyosiy sabablarga ko‘ra, ko‘p zulm chekardilar. Ularning qamoqqa tashlanishi oddiy hol bo‘lib qolgan edi.

4:17 *qurbonlik keltiradilar* — Xudoga va’da berish bilan bog‘liq bo‘lgan qurbonliklar nazarda tutilgan. Xudoga va’da berish o‘ta jiddiy mas’uliyatdir. Ammo nodon kishi o‘zini ko‘rsatish uchun, o‘ylamasdan Xudoga va’da beradi, va’dasi ustidan chiqish haqida o‘ylab ham ko‘rmaydi.

5:5 *Ruhoniy* — ibroniycha matnda *elchi*, bu so‘zning farishta degan ma’nosi ham bor. Bu o‘rinda esa ruhoniy nazarda tutilgan.

5:6 *behuda* — ibroniycha matnda *hevl*, so‘zma–so‘z tarjimasi *nafas* (shu bobning 9–oyatida ham bor). 1:2 izohiga qarang.

6:2 *behuda* — ibroniycha matnda *hevl*, so‘zma–so‘z tarjimasi *nafas* (shu bobning 4, 9, 11–oyatlarida ham bor). 1:2 izohiga qarang.

6:5-6 *…bir joyga…* — bu oyatda *Sheo‘l*, ya’ni o‘liklar diyori nazarda tutilgan. Qadimda Isroil xalqi *Sheo‘l*ni yer ostidagi tubsiz chuqurlik, marhumlar boradigan qorong‘i joy deb tushunardi.

6:12 *…yelday o‘tib ketar…* — ibroniycha matnda *hevl*, so‘zma–so‘z tarjimasi *nafas*.

7:1 *…qimmatbaho xushbo‘y moy…* — qadimgi paytlarda boy odamlar badaniga va sochiga qimmatbaho xushbo‘y moylar surtishgan. Bu — xushbo‘y hid taratish bilan birga terini sog‘lom saqlagan. Xushbo‘y moy boylikning belgisi bo‘lgan va o‘z hidi bilan shodiyona kunlarni xayolga keltirgan.

7:6 *behuda* — ibroniycha matnda *hevl*, so‘zma–so‘z tarjimasi *nafas* (shu bobning 15–oyatida ham bor). 1:2 izohiga qarang.

7:14 *Hech kim kelajakda nima bo‘lishini aytib bera olmaydi* — yoki *Hech kim Xudodan ayb topolmaydi*.

7:16 *Qonunparast bo‘lma, donoligingga juda ham ishonaverma…* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *Juda ham solih bo‘lmagin, o‘zingni o‘ta dono qilib ko‘rsatmagin…*.

7:27-28 *Voiz* — ibroniycha matnda *Qohelet*. 1:1 izohiga qarang.

8:2 *…itoat qil* — ko‘plab ibroniy qo‘lyozmalaridan, qadimiy yunoncha, suryoniycha va lotincha tarjimalardan. Ibroniycha matnda *…itoat qilaman*.

8:8 *shamol* — bu o‘rindagi ibroniycha so‘z *nafas* va *ruh* ma’nolarini ham ifodalaydi.

8:10 *behuda* — ibroniycha matnda *hevl*, so‘zma–so‘z tarjimasi *nafas* (shu bobning 14–oyatida ham bor). 1:2 izohiga qarang.

8:14 *bema’ni* — ibroniycha matnda *hevl*, so‘zma–so‘z tarjimasi *nafas*. 1:2 izohiga qarang.

9:2 *yomon* — qadimiy yunoncha, suryoniycha va lotincha tarjimalardan. Ibroniycha matnda bu so‘z yo‘q.

9:9 *…tez o‘tib ketadigan…* — ibroniycha matnda *hevl*, so‘zma–so‘z tarjimasi *nafas*. 1:2 izohiga qarang.

9:10 *o‘liklar diyori* — ibroniycha matnda *Sheo‘l*. 6:5-6 izohiga qarang.

9:15 *…shaharni qutqarib qolishi mumkin edi, lekin bu kambag‘al kishini hech kim esga olmadi* — yoki *…shaharni qutqarib qoldi, lekin keyinchalik hech kim bu kambag‘al kishini eslamadi*.

11:1-2 *Noningni suvga tashla…²…hatto sakkiz kishiga bo‘lib bergin* — mana shu ikki oyat kitob yozilgan paytda keng tarqalgan maqollar bo‘lishi mumkin. Bu maqollar insonlarni saxiylikka undayotgan bo‘lsa kerak. Axir, kelajakda nima bo‘lishini hech kim bilmaydi, ammo hammaga ayonki, ko‘pincha saxiylarning himmati ularga boshqalardan qaytadi. Bu maqollarni yana, ishbilarmonlik bilan xorijiy savdo–sotiqqa sarmoya qo‘shgin, deb tushunsa ham bo‘ladi. Shu bobning 1-6–oyatlarida Voizning asosiy maqsadi odamlarni hayotda dadillik bilan ish qilishga, tajribasizliklari tufayli ortga chekinmaslikka undashdir. Voiz shu maqsadda o‘sha paytda mashhur bo‘lgan maqollardan foydalanadi.

11:5 *jon* — 3:19 ning birinchi izohiga qarang.

11:8 *…yelday o‘tib ketadi* — ibroniycha matnda *hevl*, so‘zma–so‘z tarjimasi *nafas* (shu bobning 10–oyatida ham bor). 1:2 izohiga qarang.

12:7 *ruh* — 3:21 izohiga qarang.

12:8 *Behuda* — ibroniycha matnda *hevl*, so‘zma–so‘z tarjimasi *nafas*. 1:2 izohiga qarang.

12:8 *Voiz* — ibroniycha matnda *Qohelet* (shu bobning 9, 10–oyatlarida ham bor). 1:1 izohiga qarang.

12:12 *...bolam* — odatda donishmand muallim o‘z talabasiga shunday murojaat qilardi.

SULAYMON
PAYG‘AMBARNING
GO‘ZAL QO‘SHIG‘I

Kirish

Mazkur kitob sevgi haqidagi she’rlar to‘plamidir. Bu she’rlarni bir qiz bilan yigit bir–biriga sevgi izhor qilib aytgan yoki qo‘shiq qilib kuylagan. Kitobda yigit va qiz ba’zan xayolan gapiradilar. Ba’zan esa bir–birlariga yoki do‘stlariga murojaat qiladilar. Ba’zi she’rlarda ular sevgisining ilk damlarini eslayotganga o‘xshaydilar.

Ayrim tarjimalarda bu kitobning nomi ibroniychadan so‘zma–so‘z tarjima qilingan bo‘lib, “Qo‘shiqlarning qo‘shig‘i” deb atalgan, biroq bu nom “eng go‘zal qo‘shiq” degan ma’noni ifodalaydi. Bu kitobning muallifi shoh Sulaymon bo‘lgani uchun, mazkur tarjimada boshqa ba’zi tarjimalardagi singari “Sulaymon payg‘ambarning go‘zal qo‘shig‘i” deb atalgan.

Bu qo‘shiqlarni har xil tushunish mumkin. Ba’zilar, qo‘shiqlardagi yigit Sulaymonning o‘zi, deydilar. Boshqalar esa bu qo‘shiqni Sulaymonning saroyida yuz berayotgan voqea deb tushunadilar, ya’ni qiz shohning saroyiga keltirilgan, lekin o‘z qishlog‘ida sevgilisi bor. Kitobda bayon etilishicha, sevishganlar oxiri topishadilar. Ba’zilar bu qo‘shiqdagi yigit va qizni “Xudo va Uning xalqi yoki Masih va Uning jamoati* tasviri” deb tushunadilar.

Mazkur kitobda ibroniy she’riyatidagi turli go‘zal obrazlar keng qo‘llanilgan. Mevalar, ziravorlar, sharob, bog‘, qo‘zi, echki kabi obrazlar shular jumlasidandir. Bu to‘plamdagi qo‘shiqlar qadimgi Isroilda to‘ylarda ham aytilgan bo‘lishi mumkin.

1–BOB

[1] Sulaymonning eng go‘zal qo‘shig‘i.

Birinchi qo‘shiq

Qiz:*

O‘pgin meni lablaring bilan,
Sening sevging sharobdan ham shirinroqdir.
[2] Atir moylaring qanchalik xushbo‘y!
Yoqimli atir kabi noming har tarafga taralar.
Shuning uchun qizlar seni sevarlar.
[3] Meni o‘zing bilan olib ket, tezroq boraylik.
Ey shohim, meni o‘z yotog‘ingga olib kirgin.

Quddus qizlari:

Ey shohimiz, biz quvonamiz. Siz bilan sevinamiz,
Sharobdan ham ko‘proq sizning sevgingizni maqtaymiz.

Qiz:

Ey sevgilim! Qizlar seni sevib, to‘g‘ri qilishadi.

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

4 Ey Quddus qizlari!
Men qorachadan kelgan bo‘lsam ham go‘zalman,
Kedar* chodirlariday qora bo‘lsam ham,
Sulaymon pardalariday chiroylidirman.
5 Qoraligim uchun menga past nazar bilan qaramanglar.
Quyosh nurlari meni qoraytirdi.
Aka–ukalarimning mendan jahli chiqib,
Meni uzumzorlar qorovuli qilib qo‘yishdi,
Ammo o‘z uzumzorimga* qaray olmadim!
6 Sevgilim, menga aytgin–chi,
Qayerda o‘z podangni boqasan?
Tush vaqti ularni qayerga yotqizasan?
Ayt menga, yana podachi do‘stlaring oldida
Uyatsiz* ayollarday bo‘lib yurmay, axir.

Yigit:

7 Qayerdaligimni bilmasang,
Ey go‘zallarning go‘zali,
Podaning izlaridan borgin.
Cho‘ponlarning chodirlari oldida
O‘z echkilaringni o‘tlatgin.
8 Ey sevgilim,
Sen fir’avn aravasiga qo‘shilgan uchqur otday go‘zalsan.
9 Ziraklaring tufayli yonoqlaring go‘zaldir,
Marvaridlar bo‘yningni qanday chiroyli qilar.
10 Senga atab tilladan bezaklar,
Kumushdan taqinchoqlar yasattiraman.

Qiz:

11 Shohim yonboshlab yotganda,
Atirlarim o‘z hidini taratdi.
12 Ko‘kraklarim orasida yotgan,
Xushbo‘y mirraga* to‘la xaltacha kabidir mening sevgilim.
13 U men uchun En–Gedi* bog‘laridagi
Xina gullaridaydir.

Yigit:

14 Go‘zaldirsan, ey sevgilim,
Sen go‘zalsan!
Ko‘zlaring kabutar ko‘zlariday nazokatlidir.

Qiz:

15 Chiroylisan, ey sevgilim,
Juda ham xushro‘ydirsan,
Yam–yashil maysalar bizning to‘shagimizdir.
16 Sadr daraxtlari tomimiz bo‘lsa,

Archalar tomimiz sinchlaridir.

2–BOB

Qiz:

1 Men Sharon* atirguliman*,
Vodiylar nilufariman.

Yigit:

2 Mening sevgilim qizlar orasida,
Tikanlar orasidagi nilufar gulidaydir!

Qiz:

3 Mening sevgilim yigitlar orasida,
O‘rmon daraxtlari orasidagi olma daraxtiday ajralib turar.
Men uning soyasida o‘tirib zavq olaman,
Uning mevasi juda shirindir.
4 U meni o‘z mehmonxonasiga olib kirdi,
Meni o‘z sevgisi bilan qopladi.
5 Mayizlar yedirib, menga kuch bergin,
Olmalar bilan quvvatga to‘ldirgin,
Axir, sevgilimning ishqi dardida yonmoqdaman.
6 Uning chap qo‘li boshim ostidadir,
O‘ng qo‘li bilan esa meni quchoqlaydi!
7 Ey Quddus qizlari,
Kiyigu yovvoyi ohular* haqi ont iching.
Vaqt–soati kelmaguncha,
Sevgini qo‘zg‘atmang, uyg‘otmang.

Ikkinchi qo‘shiq

Qiz:

8 Sevgilim ovozi eshitilyapti,
Ana qaranglar, u kelyapti.
Tog‘laru qirlar osha kelyapti.
9 Sevgilim ohuday, yosh kiyikdaydir.
Mana, u devor ortida turibdi.
Oynalardan mo‘ralab,
Panjaralar orasidan qarab turibdi.
10 Sevgilim menga shunday deydi:
“Tura qol, sevgilim, oppog‘im,
Men bilan yurgin.
11 Mana qish o‘tdi, yomg‘irlar to‘xtadi.
12 Yer yuzi gullar bilan qoplanmoqda,
Yurt bo‘ylab kabutarlar kuyi eshitilmoqda,
Qo‘shiq kuylash vaqti yetib keldi.

13 Anjir meva tugishni boshladi,
Toklar ham gulga kirdi.
Ular xushbo‘y hidlarini taratmoqda.
Tura qol, sevgilim, oppog‘im,
Men bilan yurgin.”

Yigit:

14 Sevgilim, sen tog‘larda yashaydigan,
Qoyalarda yashirinadigan kabutardaysan.
Yuzingni ko‘rsatgin, ovozingni eshitay.
Ovozing juda shirin, yuzing go‘zaldir.
15 Qarang, uzumzorimiz gullab yotibdi,
Kichkina tulkilarni* ushlanglar.
Axir, ular uzumzorlarni vayron qiladi.

Qiz:

16 Sevgilim menikidir, men esa unikiman,
U nilufarlar terib, o‘z bog‘idan zavq oladi.
17 Tong otmay turib, bora qol, jonim.
Baland tog‘larda sakraydigan ohu, kiyikday bo‘lib,
Qorong‘ilik chekinmasdan oldin, qaytib keta qol.

3–BOB

Qiz:

1 Kechqurun o‘rnimda yotganimda,
Butun qalbim bilan sevgan oshig‘imni qo‘msadim.
Juda qo‘msadim, lekin uni topolmadim.
2 Endi turib, shaharga chiqaman.
Shahar maydonlariyu ko‘chalarida yurib,
Sevgilimni izlayman.
Izladim–u, ammo uni topolmadim.
3 Qo‘riqchilar shaharni kezib yurib,
Meni ko‘rib qolishdi.
Ulardan: “Sevgilimni ko‘rmadingizmi?” deb so‘radim.
4 Ularning oldidan ketishim bilanoq,
Sevgilimni topdim.
Uni mahkam quchib, qo‘yib yubormadim.
Onamning uyiga olib keldim.
Uni o‘z tuqqan onamning xonasiga olib kirdim.
5 Ey Quddus qizlari,
Kiyigu yovvoyi ohular* haqi ont iching.
Vaqt–soati kelmaguncha,
Sevgini qo‘zg‘atmang, uyg‘otmang.

Uchinchi qo‘shiq

Quddus qizlari:

6 Dashtda tutunday ko‘tarilib,
Ko‘rinayotgan narsa nimadir?
Undan attor rastasidagi barcha xushbo‘y atirlarning hidi,
Mirra* va xushbo‘y tutatqilarning hidi kelib turibdi.
7 Qaranglar, u Sulaymonning taxtiravonidir*,
Uning atrofida oltmishta pahlavoni bor.
Ular Isroil xalqi orasidagi eng bahodir jangchilardir.
8 Qilich o‘ynatishda hammasi mohir,
Jangda ham juda mahoratlidirlar.
Tunda bo‘ladigan hujumlardan saqlanish uchun
Ularning hammasi qilich bilan qurollangan.
9 Shoh Sulaymon o‘z taxtiravonini
Lubnon yog‘ochlaridan yasattirgan.
10 Bu taxtiravon dastalari kumushdan,
Orqasi tilladan yasalgan,
O‘rindig‘iga esa safsar kimxob* to‘shalgan.
Quddus qizlari taxtiravonning ichini
Muhabbat bilan bezatganlar.
11 Chiqinglar, ey Sion qizlari!
Shoh Sulaymonga qaranglar.
To‘yi kuni, yuragi shodlik bilan to‘lgan kuni
Onasi kiydirgan tojga qaranglar.

4–BOB

Yigit:

1 Qanday go‘zalsan, ey sevgilim,
Qanchalik go‘zalsan!
Chachvoning ortidagi ko‘zlaring
Kabutarlarday muloyimdir.
Gilad qirlaridan yoyilib tushayotgan
Qop–qora qo‘ylardaydir sening sochlaring.
2 Yuvib–taralgan, juni qirqiladigan,
Oppoq echkilardaydir sening tishlaring.
Har birining egizi bor,
O‘rni hech bo‘sh qolmagan.
3 Lablaring qirmizi g‘unchalardaydir,
Og‘zing ham juda go‘zal.
Chachvoning ortidagi yonoqlaring esa
Anorlarday qip–qizil.
4 Bo‘yning tik qurilgan Dovud minorasiday,
Marjonlaring tizim–tizim,

Jangchilarning minglarcha qalqonlaridaydir.
5 Ko‘kraklaring egizak kiyiklardaydir.
Ha, nilufarlar orasida o‘tlaydigan
Ikki kiyikdaydir ular.
6 Qorong‘ilik chekinmasdan oldin,
Tong otmay turib,
O‘sha xushbo‘y mirra* tog‘iga,
Ziravorlar qiriga chiqaman.
7 Har jihatdan go‘zaldirsan, sevgilim,
Senda hech qanday nuqson yo‘q.
8 Kela qol, kelinchagim,
Lubnondan menga kel.
Emona va Sanir tog‘laridan,
Xermon tog‘lariyu* sherlar makonidan,
Qoplonlarning maskanidan tush.

9 Ey jonim, kelinchagim,
Qalbimni asir qilding.
Ko‘zlaringning nigohi bilan,
Bo‘yningdagi marjoning bilan
Qalbimni asir qilding.
10 Sevging qanday shirindir,
Ey jonim, kelinchagim.
Sening sevging sharobdan ham yaxshiroqdir.
Atir moylaring esa
Har qanday ziravordan ham xushbo‘yroqdir.
11 Kelinchagim, lablaringdan bol tomar.
Asal va sut tiling ostida,
Kiyimlaring hidi Lubnon hidiga o‘xshar.

12 Jonim mening, kelinchagim.
Qulflangan bog‘, devor bilan o‘ralgan buloqdaysan,
Yopib qo‘yilgan chashmadaysan sen.
13 A’lo mevalar beradigan
Anor bog‘iga o‘xshaysan.
Bu bog‘da xina va sunbullar o‘sadi.
14 Ha, bu bog‘da sunbulu za’faron,
Xushbo‘y qamish va dolchin,
Har xil xushbo‘y daraxtlar,
Mirra va aloe,
Eng a’lo ziravorlar o‘sadi.
15 Sevgilim, sen bog‘dagi chashmaga,
Hayotbaxsh suv bulog‘iga o‘xshaysan.
Lubnon tog‘larining oqar suvlaridaysan.

Qiz:

16 Ey shimol shabadasi, qo‘zg‘al,
Janub shamoli, kelgin!
Bog‘imda esgin,
Toki bog‘imning xushbo‘y hidlari
Hamma joyga taralsin.
Sevgilim o‘z bog‘iga kelib,
A’lo mevalaridan yesin.

5–BOB

Yigit:

1 Ey jonim, kelinchagim, bog‘imga kelib,
Mirra* va ziravorlarimni to‘playman.
Asalari mumini hamda asalimni yeyman,
Sut va sharobimni ichaman.
To‘yguningcha yegin, sevgilim,
Sevgidan ichib, qoniqqin.

To‘rtinchi qo‘shiq

Qiz:

2 Uxladim, lekin yuragim uyg‘oq edi.
Ana, sevgilim chaqirmoqda:
“Ochgin eshigingni, jonim, sevgilim,
Kabutarim, komilim.
Boshim ho‘ldir shudringdan,
Sochlarim esa tun shabnamidan.”
3 Kiyimlarimni yechib qo‘yganman,
Qanday qilib yana kiyaman?!
Oyoqlarim yuvilgan,
Ularni kir qilaymi?!
4 Sevgilim qo‘lini eshik teshigidan kirgizganda,
Butun vujudim titrab ketdi.
5 Sevgilimni kirgizay, deya turdim.
Qo‘llarimdagi mirra,
Eshikning tutqichlariga oqib tushdi.
6 Sevgilimga eshikni ochdim,
Lekin u ketib qolibdi.
U ketganiga yurak–bag‘rim ezildi*.
Qidirib, uni topa olmadim,
Chaqirdim, lekin u javob bermadi.
7 Shaharni aylanib yurgan qo‘riqchilar
Meni ko‘rib qoldilar.
Ular meni urib yaraladilar.
O‘sha shahar qo‘riqchilari
Ustimdagi ro‘molimni olib qo‘ydilar.

[8] Ey Quddus qizlari, va’da beringlar,
Sevgilimni topsangiz, aytib qo‘yinglar,
Uning ishqi dardida yonmoqdaman.

Quddus qizlari:

[9] Ey ayollar go‘zali,
Sevgilingning boshqalardan nimasi ortiq?!
Uning boshqalardan nimasi ortiqki,
Sen bizga, va’da beringlar, deb aytasan?!

Qiz:

[10] Sevgilim ko‘hlik, chiroylidir,
O‘n mingtaning ichida ajralib turar.
[11] Boshi eng a’lo tilladay go‘zal,
Jingalak sochlari qarg‘aday qop–qoradir.
[12] Ko‘zlari esa buloqlar bo‘yidagi kabutarlarday,
Chashmalar bo‘yidagi, sutga cho‘mdirilgan kaptarlardaydir.
[13] Uning yonoqlari muattar hidli
Ziravor bog‘lari kabi juda xushbo‘ydir.
Lablari esa mirra oqib turgan
Nilufarlar kabi shirindir.
[14] Qo‘llari tilladan yasalib,
Topaz toshlar bilan bezatilganga o‘xshaydi.
Tanasi esa zangori yoqutlar o‘rnatilgan
Tep–tekis fil suyagiday chiroylidir.
[15] Oyoqlari tilla taglikka o‘rnatilgan
Marmar ustunlari kabi kuchlidir.
Uning qiyofasi ulug‘vor Lubnonday,
Qudratli, a’lo sadr daraxtlaridaydir.
[16] Uning ovozi juda shirin,
O‘zi esa har jihatdan maftunkor.
Ey Quddus qizlari, mana shunday yigit
Mening sevgilim, do‘stimdir.

6–BOB

Quddus qizlari:

[1] Sevgiling qayerga ketdi,
Ey go‘zallarning go‘zali?
Ayt–chi, qaysi tomonga yo‘l oldi?
Biz sen bilan uni qidiraylik.

Qiz:

[2] Sevgilim o‘z bog‘iga,
Xushbo‘y ziravorlar bog‘iga ketdi.
U nilufar gullar terib,

O‘z bog‘idan zavq olgani ketdi.
3 Men sevgilimniki, sevgilim esa menikidir!
U nilufarlar terib, o‘z bog‘idan zavq oladi.

Beshinchi qo‘shiq

Yigit:

4 Sen Tirza shahriday go‘zaldirsan, sevgilim,
Quddus shahriday* xushro‘ydirsan,
Bayroqlari ko‘tarilgan qo‘shinday savlatlisan.
5 Ko‘zlaringni olib qoch mendan,
Ular meni maftun qilganlar.
Gilad qirlaridan yoyilib tushayotgan
Qop–qora qo‘ylardaydir sening sochlaring.
6 Yuvib–taralgan oppoq
Echkilardaydir sening tishlaring.
Har birining egizi bor,
O‘rni hech bo‘sh qolmagan.
7 Chachvoning ortidagi yonoqlaring esa
Anorlarday qip–qizil.
8 Ana, oltmishta malika, saksonta kanizak,
Son–sanoqsiz qizlar!
9 Ammo mening kabutarim,
Komil sevgilim o‘zgachadir.
Onasining erkasi,
Tuqqan onasining yagonasidir.
Qizlar uni ko‘rib, u baxtlidir, deyishadi,
Malikayu kanizaklar uni ko‘rib, maqtashadi.
10 Mahbubamning nigohlari tongdaydir.
O‘zi esa to‘lin oyday go‘zal, quyoshday yorqin,
Bayroqlari ko‘tarilgan qo‘shinday savlatlidir.
11 Men bodomzorga,
Vodiy chechaklarini ko‘rishga bordim.
Toklaru anorlar gullaganmikin, deya bordim.
12 Shohona aravada o‘tirganday,
Hayajondan titrar edim.

7–BOB

Quddus qizlari:

1 Qaytgin, qaytib kelgin, ey Shulamlik* qiz!
Qaytib kel, seni yana bir bor ko‘raylik.

Yigit:

Nima uchun bu Shulamlik qizga qaraysizlar?!
U ikki qator qizlar orasida raqsga tushyaptimi?!

[2] Ey malikaga o‘xshagan qiz!
Kafsh kiygan oyoqlaring qanday chiroyli!
Do‘mboq sonlaring javohirlarday,
Xuddi mohir ustaning qo‘li bilan ishlanganday!
[3] Doimo xushbo‘y sharobga to‘la bo‘lgan,
Dum–dumaloq kosadaydir sening kindiging.
Yumaloq qorning esa nilufarlar bilan o‘ralgan,
Tillarang bug‘doy uyumi kabidir.
[4] Ko‘kraklaring egizak kiyiklardaydir.
[5] Fil suyagidan qurilgan minoraday go‘zaldir bo‘yning,
Batrabim darvozasi yonidagi
Xashbon* buloqlariday yorqindir ko‘zlaring.
Burning esa Damashq shahriga qaragan
Lubnon minorasiday tekisdir.
[6] Boshing Karmil tog‘iday* baland turadi,
Soching kimxobday go‘zal,
Hatto shoh ham unga asirdir.

[7] Qanday go‘zal va xushro‘ysan,
Huzurbaxsh sevgilim mening.
[8] Palma daraxtiday savlatlisan,
Ko‘kraklaring uning mevalariday to‘liqdir.
[9] Men shunday dedim: “Palma daraxtiga chiqib,
Mevalaridan ushlayman.”
Ko‘kraklaring men uchun uzumday mazali,
Nafasing esa olmalarday shirin bo‘lsin.
[10] O‘pichlaring eng a’lo sharobday shirindir,
Bunday sharob lab va tishlar orasidan tekis o‘tadi*.

Qiz:

[11] Men sevgilimnikiman,
U faqat meni qo‘msaydi.
[12] Kelgin, sevgilim, dalalarga boraylik.
Xina gullari orasida* yotib qolaylik.
[13] Vaqtli turib, uzumzorlarga kiraylik.
Ular gulga kirdimikin?!
Toklaru anorlar gullaganmikin?!
O‘sha yerda men senga o‘z sevgimni to‘la ko‘rsataman.
[14] Mehrigiyolar* hid taratib turibdi.
Eshigimiz tepasiga har xil mevalardan osib,
Sen uchun saqlab qo‘ydim, sevgilim.

8–BOB

Qiz:

[1] Qaniydi, onam emizgan akamday bo‘lsang edi.
Ko‘chada ko‘rganimda, seni o‘pgan bo‘lardim,
Hech kim meni bu uchun ayblamagan bo‘lardi.
[2] Men seni onamning uyiga boshlab kelardim.
Menga o‘git bergan onamning yotog‘iga olib kirardim,
Senga xushbo‘y sharobu anorlarim sharbatini berardim.
[3] Mana, sevgilimning chap qo‘li boshim ostidadir,
O‘ng qo‘li bilan esa meni quchoqlaydi!
[4] Ey Quddus qizlari, va’da beringlar,
Vaqt–soati kelmaguncha,
Sevgini qo‘zg‘atmang, uyg‘otmang.

Oltinchi qo‘shiq

Quddus qizlari:

[5] O‘z sevgilisi bilan quchoqlashib,
Cho‘l tarafdan kelayotgan kim?

Qiz:

Olma daraxti ostida men seni uyg‘otdim.
Onang shu yerda senga homilador bo‘lgan,
Mana shu yerda seni dunyoga keltirgan.
[6] Qo‘lingdagi muhr uzugingday,
Meni ham yuragingga muhrlab olgin.
Axir, sevgi o‘limday kuchli,
Ishq ajalday* shiddatlidir.
Sevgining uchqunlari olov uchqunlariday,
Lovullagan alangadaydir.
[7] Suv sevgini o‘chirolmaydi,
To‘fonlar uni cho‘ktirolmaydi.
Birortasi sevgi uchun
Uyidagi bor boyligini bersa ham,
Mazaxdan boshqa hech narsaga erishmaydi.

Qizning akalari:

[8] Bizning bir singlimiz bor,
Uning ko‘kraklari hali bo‘rtmagan.
Uni so‘rab kelishsa,
Biz nima qilamiz?
[9] Agar u devor bo‘lsa,
Uning atrofida kumushdan qal’a quramiz.
Agar u eshik bo‘lsa,
Uni sadr yog‘ochlari bilan to‘sib qo‘yamiz.

Qiz:

[10] Men ham devorday edim.
Endi esa ko‘kraklarim minoralardaydir.

Shuning uchun sevgilim meni
To‘liq yetilgan deb biladi.
11 Sulaymonning Baal–Xomonda uzumzori bor edi.
U uzumzorini bog‘bonlarga ishonib topshirdi.
Ularning har biri uzumzor uchun
Ming kumush tanga* to‘lashi kerak edi.

Yigit:

12 Sulaymon, sen ming tanga ol,
Qorovullarga esa ikki yuz tangadan* berilsin.
Mening uzumzorim o‘zimnikidir.
13 Ey bog‘larda yashovchi qiz,
Do‘stlarim ovozingni eshitishni kutmoqda.
Qani, men ham ovozingni bir eshitay.

Qiz:

14 Xuddi kiyikday, yosh ohuday bo‘lgin,
Ziravorlar tog‘lariga tezroq kelgin, sevgilim.

IZOHLAR

jamoat — Iso Masihga imon keltirgan odamlar nazarda tutilgan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi JAMOAT so‘ziga qarang.

1:1 *Qiz* — kursiv bilan yozilgan sarlavhalar ibroniycha asl nusxada yo‘q. Bu sarlavhalar o‘quvchiga yordam sifatida kim gapirayotganini bildirish uchun mazkur tarjimaga kiritilgan. Asl nusxa matnining ba’zi joylarida kim gapirayotganini bildiradigan grammatik belgilar bor. Ammo kim gapirayotgani matnda har doim ham aniq emas.

1:4 *Kedar* — Arabiston sahrosidagi yerlar.

1:5 *o‘z uzumzorim* — ko‘chma ma’nodagi ibora bo‘lib, qiz o‘z qiyofasiga ishora qilyapti.

1:6 *Uyatsiz* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *yuzi to‘silgan*. Qadimgi Isroilda fohishalar o‘zlarini tanitmaslik uchun, yuzlarini yopib yurganlar (Ibtido 38:14-15 ga qarang). Qiz axloqi buzuq ayolga o‘xshab qolmasligi uchun, yigitni cho‘ponlar orasidan qidirmoqchi emas.

1:12 *mirra* — ma’lum bir daraxtlarning qotgan yelimidan tayyorlangan xushbo‘y modda.

1:13 *En–Gedi* — O‘lik dengizning g‘arbiy qirg‘og‘idagi bir voha.

2:1 *Sharon* — O‘rta yer dengizi bo‘yidagi unumdor tekislik.

2:1 *atirgul* — yoki *za’faron guli*.

2:7 *Kiyigu yovvoyi ohular* — ko‘chma ma’nodagi ibora bo‘lib, romantik sevgiga yoki kuchli yigitlarga ishora qilayotgan bo‘lishi mumkin.

2:15 *Kichkina tulkilar* — ko‘chma ma’nodagi ibora bo‘lib, qiz va yigitning sevgisiga qarshilik ko‘rsatadigan yoki ular nikohdan o‘tmagunlaricha munosabatlarini davom ettirishga to‘sqinlik qiladigan muammolarga ishora qilayotgan bo‘lishi mumkin.

3:5 *Kiyigu yovvoyi ohular* — 2:7 izohiga qarang.

3:6 *Mirra* — 1:12 izohiga qarang.

3:7 *taxtiravon* — shoh, malika va oliy martabali kishilarni o‘tqazib, yelkada ko‘tarib olib yurish uchun uzun dastalar ustiga o‘rnatilgan hashamdor o‘rindiq.

3:10 *kimxob* — o‘rishi ipak, arqog‘i zardan to‘qilgan mato.

4:6 *mirra* — 1:12 izohiga qarang.

4:8 *Emona…Sanir…Xermon tog‘lari…* — Lubnon tog‘laridan sharqdagi tog‘ tizmalarida joylashgan. Sanir tog‘i Xermon tog‘ining qadimgi nomi edi (Qonunlar 3:9 ga qarang).

5:1 *Mirra* — 1:12 izohiga qarang.

5:6 *U ketganiga yurak–bag‘rim ezildi* — yoki *Uning ovozini eshitishga ham zor bo‘ldim*.

6:4 *…Tirza shahri…Quddus shahri…* — bu shaharlar o‘z chiroyi bilan mashhur edi (Zabur 49:2 ga qarang). Keyinchalik Tirza shahri Isroilning, ya’ni shimoliy shohlikning birinchi poytaxti bo‘ldi (3 Shohlar 15:33, 16:8, 15, 23 ga qarang).

7:1 *Shulamlik* — Shulam noma’lum bir joy yoki *komil* ma’nosini bildiradigan bir so‘z ham bo‘lishi mumkin.

7:5 *Xashbon* — Amor shohi Sixo‘n hukmronligi davrida bu shahar poytaxt bo‘lgan (Sahroda 21:26 ga qarang). Bu shahar Iordan daryosining sharq tomonida joylashgan edi. Buloqlar ko‘pligidan u yerda suv doim mo‘l–ko‘l edi.

7:6 *Karmil tog‘i* — Isroildagi eng baland tog‘lardan biri. Bu tog‘ unumdorligi va go‘zal tabiati bilan mashhur edi.

7:10 *…lab va tishlar orasidan tekis o‘tadi* — qadimiy yunoncha, suryoniycha va lotincha tarjimalardan. Ibroniycha matnda *…uxlayotganlarning lablari ustidan mayingina o‘tadi*.

7:12 *Xina gullari orasida…* — yoki *Qishloqlar orasida….*

7:14 *Mehrigiyolar* — qadimda odamlar, bu o‘simlikning mevalari jinsiy xohishni kuchaytirib, ayolning homilador bo‘lishiga imkoniyat yaratadi, deb ishonishardi.

8:6 *ajal* — ibroniycha matnda *Sheo‘l*, o‘liklar diyori. Qadimda Isroil xalqi *Sheo‘l*ni yer ostidagi tubsiz chuqurlik, marhumlar boradigan qorong‘i joy deb tushunardi.

8:11 *Ming kumush tanga* — ibroniycha matnda *Ming shaqal kumush*, taxminan 11 kiloga to‘g‘ri keladi (shu bobning 12–oyatida ham bor).

8:12 *ikki yuz tanga* — ibroniycha matnda *ikki yuz shaqal*, taxminan 2,3 kiloga to‘g‘ri keladi.

ISHAYO

PAYG‘AMBARNING KITOBI

Kirish

Ishayo payg‘ambar taxminan qirq yil davomida faoliyat ko‘rsatgan. Mana shu davrda Yahudo shohlaridan to‘rttasi birin–ketin hukmronlik qilgan edi (1:1 ga va o‘sha oyatning ikkinchi izohiga qarang). Ishayo Quddusda yashab, Xudoning kalomini Yahudoga, ya’ni janubiy shohlikka yetkazgandi. U yashagan davrda Isroil, ya’ni shimoliy shohlik quladi, aholisi esa Ossuriyaga asirlikka olib ketildi. Xo‘sheya va Mixo payg‘ambarlar Ishayo payg‘ambarning zamondoshlari edi.

Mazkur kitobni uch qismga bo‘lish mumkin. Kitobning birinchi qismida (1-35–boblar) Ishayo payg‘ambar Yahudo xalqining gunohlarini fosh qiladi. Yurtdagi buzg‘unchilik va hukm surgan adolatsizliklarni tilga oladi. Yahudo xalqining gunohlari Xudoning g‘azabini keltiradi. Kitobning bu qismida muallif Xudoning muqaddasligiga alohida urg‘u beradi, Uni butun olam Shohi, cheksiz qudrat Sohibi sifatida tasvirlaydi.

Kitobning ikkinchi qismida (36-39–boblar) tarixda yuz bergan hodisalar, chunonchi, Ossuriyaning Yahudo yurtiga bostirib kelgani va Quddusni qamal qilgani haqida bayon qilinadi. O‘shanda Ossuriya muvaffaqiyatga erishmagan edi. Lekin Ishayo payg‘ambar xalqni ogohlantirib, Bobil shohligining kuchayishi va kelajakda Yahudo yurtini bosib olishi haqida bashorat qiladi.

Kitobning uchinchi qismi (40-66–boblar) uzoq kelajakka oid bashoratlardan iborat bo‘lib, xalqqa umid bag‘ishlaydi. Bobil shohligi Yahudo yurtini vayron qilib, xalqini asirlikka olib ketgandan keyin, Xudo O‘zi belgilagan vaqtda ularni o‘z yurtiga qaytarib olib keladi. Ularni yupatib, ro‘shnolikka olib chiqadi. Mazkur boblarning mohiyati shundan iboratki, Xudo dunyoda yuz berayotgan hodisalarni boshqaradi, U nafaqat O‘z xalqiga, balki boshqa millatlarga ham yaxshilikni ravo ko‘radi. Xudo dunyodagi barcha xalqlarga Yahudo xalqi tufayli baraka ulashadi.

1–BOB

1 Omiz o‘g‘li Ishayoning Yahudo* hamda Quddusga oid bashorati. Bu davrlarda Yahudoda Uzziyo, Yo‘tom, Oxoz va Hizqiyo kabi shohlar hukmronlik qilardi*.

Xudo O‘z xalqiga ta’na qiladi

2 Eshiting, ey samolar, tingla, ey zamin,
Shudir Egamizning kalomi:
“Bino qildim bolalarni*, ulg‘aytirdim ularni,
Ammo ular isyon qildilar Menga.
3 Ho‘kiz biladi o‘z egasini,
Hatto eshak bilar kim uni boqishini,
Ammo xalqim Isroil bilmaydi,
Ular tushunmaydi Men, o‘z Egasini.”

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

4 Eh, gunohkor elat, aybi muqarrar xalq,
Eh, qabih nasllar!
Nomussizlarcha ish qilar bu bolalar,
Eh, Egamizni tark etgan ular,
Isroil xalqining Muqaddas Xudosiga
Shakkoklik qilgan,
Egamizga orqa oʻgirgan ular!

5 Egam aytar: “Nega yana muncha kaltak istaysiz?!
Ne uchun isyonni davom ettirasiz?!
Yaralangan butun bosh,
Madordan ketgan butun yurak.
6 Boshdan–oyoq sogʻ joyi yoʻq,
Yiring ila qoplangan, koʻkarib ketgan,
Yaralaridan qon oqib yotar,
Tozalanmagan, bogʻlanmagan, moy surtilmagan*.
7 Vayronalar ichra yotar yurtingiz,
Olovda yonib ketgan shaharlaringiz!
Oldingizda yeringizni
Yeb bitirar kelgindilar,
Begonalar yurtingizni vayron qilar*.
8 Ammo aziz Quddus*
Qamal qilinganday boʻlar,
U oʻxshab qolar
Uzumzordagi yolgʻiz chaylaga,
Polizda tikkaygan kapaga.”

9 Agarda Sarvari Olam
Qoldirmaganda edi besh–oltitamizni,
Sadoʻm shahrining holiga tushar edik,
Gʻamoʻra shahriday* xonavayron boʻlardik.

10 Egamizning kalomini eshiting,
Sadoʻm yoʻlboshchilarining izdoshlari!
Xudoyimizning oʻgitiga quloq soling,
Gʻamoʻra xalqining sheriklari!
11 “Nima keragi bor Menga?!
Koʻplab qurbonligingiz?!
Toʻyib ketdim endi
Kuydirilgan qoʻchqorlar nazridan,
Boʻrdoqi yogʻlaridan,
— deb aytmoqda Egamiz. —
Menga xush kelmadi buqalarning,
Qoʻzilar va echkilarning qoni.
12 Huzurimda hozir boʻlganingizda,

Muqaddas Hovlimni bulg‘asin, deb kim aytdi?
Bularni sizlardan kim so‘radi?!
13 Endi soxta nazrlar qilmanglar Menga,
Tutatqingiz ham Menga jirkanchdir!
Toqat qilmasman endi
Chorlovlaringizga, fosiq yig‘iningizga,
Yangi oy shodiyonasiyu Shabbat kuningizga.
14 Nafratlandim yangi oy shodiyonangizdan
Hamda «muqaddas» kunlaringizdan.
Bular Menga og‘ir yuk bo‘ldi,
Toliqqanman bularni ko‘tarishdan.
15 Hatto ko‘p ibodat qilganingizda ham,
Eshitmasman Men sizlarni.
Menga ochganingizda qo‘llaringizni,
Sizlardan yashiraman Men ko‘zlarimni.
Qo‘llaringiz qonga botgandir.
16 Poklang, tozalang o‘zingizni.
Ko‘z oldimdan yo‘qoting
Qabih qilmishlaringizni.
Qabihlikni endi bas qiling!
17 O‘rganing ezgulik qilishni,
Adolatni izlang,
Yo‘lga soling zolimni*,
Himoya qiling yetimni,
Beva haqi uchun kurashing.”

18 Egamizning kalomi shudir:
“Qani, endi birgalashib o‘ylaylik:
Gunohlaringiz qizil rangga o‘xshasa ham,
Sizlar qorday oppoq bo‘lasiz.
Gunohlaringiz qirmizi rangga o‘xshasa ham,
Sizlar momiqday oppoq bo‘lasiz.
19 Agar Menga itoat etsangiz chin ko‘ngildan,
Yeysiz, albatta zaminning sara hosilidan.
20 Ammo rad etib, Menga bo‘ysunmasangiz,
Qilichning damiga ro‘para bo‘lgaysiz.”
Egamizning O‘zi shunday deb aytdi.

Quddus xalqining sadoqatsizligi

21 Ey Quddus! Qayerga g‘oyib bo‘ldi sening sadoqating?!
Qanday qilib fohishaga sen aylanding?!
Axir, oldinlari xalqing solihlikka, adolatga tashna edi!
Endi esa shahringda faqat qotillar qoldi!
22 Sening kumushing toshqol* bo‘ldi,
Sharobing suv bilan aralashdi.
23 Ha, isyonkordir yo‘lboshchilaring,

O‘g‘rilarga sherikdir ular.
Har biri porani sevar,
Hadyaning ortidan quvar.
Yetimni ular himoya qilmas,
Bevaning arzi ularga yetib bormas.

24 Endi Isroil xalqining qudratli Xudosi,
Sarvari Olam — Rabbiy aytadi:
“Ha, dushmanlarimga g‘azabimni socharman,
G‘animlarimdan o‘ch olib, tasalli toparman.
25 Yana sizlarga qarshi qo‘l ko‘taraman.
Ishqor bilan tozalaganday,
Jamiki qorishmani yo‘q qilib,
Toshqollarni ajrataman.
26 Azalda bo‘lganiday
Odil hakamu maslahatchilarni beraman.
Shundan so‘ng senga nom qo‘yilar:
«Solihlik shahri, Sadoqat shahri», deya.”

27 Shunda Quddus adolat orqali qutqariladi,
Tavba qilganlar solihlik tufayli najot topadi.
28 Isyonkoru gunohkorlar birga qiriladi,
Egamizdan voz kechganlar halok bo‘ladi.

29 Sizlar sharmanda bo‘lasiz
O‘zingiz xush ko‘rgan emanlar sababli.
Mana, uyalib qolasiz
O‘zingiz tanlagan sajdagoh bog‘lar* tufayli.
30 Ha, sizlar o‘xshab qolasiz
Yaprog‘i qovjiragan emanga,
Hamda suvsiz qaqragan boqqa.
31 Kuchlilar ham cho‘pga o‘xshab qoladi.
Ishlari lov etgan olovga o‘xshaydi.
O‘zlariyu ishlari birga yonib ketadi,
Hech kim bu olovni o‘chirolmaydi.

2–BOB

Abadiy tinchlik

1 Omiz o‘g‘li Ishayoga vahiyda Yahudo va Quddus haqida ayon bo‘lgan bashorat.

2 Shunday kunlar keladiki,
Egamizning uyi turgan tog‘
Tog‘larning eng yuksagi bo‘lib, qaror topadi.
Bu tog‘ hammasidan ham baland bo‘ladi,
Hamma xalqlar u yerga daryoday oqib keladi.

3 Ko‘plab ellar keladi,
Ular shunday deb aytadi:
“Qani, yuringlar!
Chiqaylik Egamizning tog‘iga!*
Qani, yuringlar!
Boraylik Yoqubning Xudosi uyiga!
Toki U bizga o‘rgatsin O‘zining yo‘llarini,
Toki yuraylik bizlar Uning so‘qmoqlaridan.”
Axir, Egamizning kalomi kelib chiqar Quddusdan,
Ha, Xudoning ta’limoti kelib chiqar Siondan.
4 Egamiz hukm qiladi xalqlarning orasida,
Ajrim qiladi ko‘p millatlar orasida.
Qilichlarini aylantirishadi omochga,
Nayzalarini esa tok qaychilariga.
Qilich ko‘tarmaydi bir–biriga xalqlar,
Hech qachon jang qilmaydi ular.

Ishayoning Isroil xalqiga murojaati

5 Ey Yoqub nasli! Kelinglar, Egamizning nurida yuraylik. 6 Ey Yoqub xonadoni!
Xalqingizning yo‘llarini siz tark etdingiz!* Bu yurt sharqdan kelgan bashoratgo‘ylarga*,
Filistlar yurtiga* o‘xshab folbinlarga to‘la. Ular begona xalqlar bilan hamtovoq bo‘ldilar.

7 Qarang, Yoqub xonadoni to‘la kumush, oltinga,
Chek–chegarasi yo‘q xazinalarining,
Ularning yurti to‘ladir otlarga,
Chek–chegarasi yo‘q jang aravalarining.
8 Ularning yurti to‘la behuda butlarga!
Ular ta’zim etarlar
Qo‘llarining ijodiga,
O‘zlari yasab, yaratganlarga.
9 Evoh, mana inson past bo‘ldi,
Shu tariqa odamzod tiz cho‘ktirildi,
Ularning qaddini ko‘tarma, ey Egam!

10 Egamdan qo‘rqib qochinglar,
Qoyaning ichiga kirib olinglar,
Tuproq ostiga yashirininglar,
Egamning ulug‘vorligi buyukdir!
11 Ha, insonning mag‘rurligi yerga uriladi,
Odamzodning manmanligi yo‘q qilinadi,
Yolg‘iz Xudo o‘sha kuni yuksaladi.

12 Zotan, Sarvari Olamning bir kuni bor,
Qarshi chiqar U jamiki kibor, kekkayganlarga.
O‘sha mag‘rurlarga qarshi bo‘lar,
Ularning har birini yerga urar.

13 Qarshi bo‘lar U barcha yuksak, mag‘rurlarga!
Ha, o‘sha Lubnon sadrlariyu
Bashan* emanlarining hammasiga.
14 Qarshi bo‘lar U hamma baland tog‘larga,
Hamma yuksak tepaliklarga.
15 Qarshi bo‘lar U har bir baland minoraga,
Har bir mustahkam qal’aga.
16 Qarshi bo‘lar o‘sha mashhur Tarshish* kemalariyu
Inson yaratgan barcha ajoyibotlarga.
17 Ha, yerga uriladi o‘sha odamzod faxri,
Past bo‘ladi insonning yuksakligi!
Yolg‘iz Xudo o‘sha kuni yuksaladi!
18 Behuda butlar tamomila yo‘q bo‘lib ketadi.
19 Egamiz, yerni larzaga solay, deya qo‘zg‘alganda,
Inson Egamizdan qo‘rqqanidan
Kirib ketar qoyalardagi g‘orlarga.
Uning buyuk ulug‘vorligidan
Yashirinar yerdagi chuqurlarga.

20 Odam, o‘zim sajda qilay, deb yasagan
Oltinu kumush butlarini
Berar o‘sha kuni yumronqoziq
Hamda ko‘rshapalaklarga.
21 Ha, Egamiz, yerni larzaga solay, deya qo‘zg‘alganda,
Inson Egamizdan qo‘rqqanidan
Qoyalardagi g‘orlarga kirib ketar.
Uning buyuk ulug‘vorligidan
Cho‘qqilarning yoriqlariga yashirinar.

22 Endi uzoqda yuring
Tuproqdan yaratilganlardan.
Bormi ularning biron qiymati?!

3–BOB

Quddusdagi betartiblik

1 Sarvari Olam — Rabbiy endi Quddus va Yahudo xalqiga har turli ta’minot hamda madad bermay qo‘yadi. Ularni non va suvdan bebahra qilyapti. 2 Jangchilar va askarlardan, hakamlar va payg‘ambarlardan, folbinlar va oqsoqollardan mahrum qilyapti. 3 Ellikboshi va amaldorlardan, maslahatchilardan, mohir ustalar va “dono” afsungarlardan judo qilyapti.

4 Egam aytar: “Bolalar hukmron bo‘lar bu xalq ustidan,
Aqlsizlar hukmronlik qilar ular tepasidan.”

5 Xalq bir–biriga zulm qiladi,

Har kim do‘stiga dushman bo‘ladi.
Haqorat qilar yosh yigit oqsoqolni,
Sharmanda odam esa obro‘li odamni.

6 Odamlar o‘z yaqinini ushlab olib,
O‘sha qarindoshiga shunday deydilar:
“Ustingda kiyiming bor ekan,
Bizga bosh bo‘la qol.
Mana bu vayronalar uyumi
Sening qo‘l ostingda bo‘ladi.”
7 U esa o‘sha kuni qasam ichib aytar:
“Axir, men shifo bera olmayman,
Meni qilmang xalqqa boshliq,
Uyimda bor na non, na kiyim.”

Hukmning natijasi

8 Ha, Quddus ham, Yahudo ham quladi.
Xalqining tillari, ishlari Egamizga qarshidir.
Egamning shuhratini ular yerga bulg‘adi.
9 Yuzlari guvohlik berib turar,
Ular Sado‘m* kabi gunohlarini oshkor qilar.
Ha, gunohlarini ular yashirmas.
Eh, o‘zlari boshlariga keltirar kulfat!
Ularning holiga voy!

10 Solihlarga esa yaxshilik ko‘rasan, deb ayting,
Ular o‘z ishlarining samarasidan lazzat topadi.
11 Ammo fosiqlarning holiga voy! Boshlarida kulfat,
Axir, qilmishlariga yarasha qaytadi o‘zlariga.

12 Yosh bolalar ezadi xalqimni,
Ayollar hukmronlik qiladi ular ustidan.
Ey xalqim, yo‘lboshchilaring seni chalkashtiradi,
So‘qmoqlaringdan seni adashtiradi.

Egamizning da’vosi

13 Egamiz O‘z da’vosini isbot qilmoqqa kirishayotir,
Ha, xalqlarni hukm qilmoqqa U qo‘zg‘alayotir.
14 O‘z taxtiga o‘tirib Egamiz
O‘z xalqining oqsoqollariyu
Shahzodalari bilan hukmga kirishar:
“Sizlar Mening uzumzorimni* xarob qilgansiz.
Kambag‘aldan olgan o‘lja bilan to‘la uyingiz.
15 Nimasi bu?! Xalqimni ezaverasiz!
Kambag‘alni iskanjaga olaverasiz!”
Sarvari Olam — Rabbiyning so‘zidir bu.

Egamiz Quddus ayollarini ogohlantiradi

16 Egam aytar: “Mag‘rurdir Quddus* ayollari,
Bo‘yinlarini likillatib, ko‘zlarini suzib yurar,
Mayda qadam tashlab yurib,
To‘pig‘idagi halqalarni jiringlatar.”
17 Shu bois Rabbiy yara qilar
Quddus ayollarining boshlarini,
Sharmanda qilar ochib uyatli joylarini.
18 O‘sha kuni Rabbiy tortib olar ularning
Go‘zalligi — to‘pig‘idagi bezaklarini,
Tillaqoshlariyu zeb–ziynatlarini,
19 Sirg‘alari, bilaguzuk va harir ro‘mollarini,
Tortib olar boshidagi tojini,
Bilaguzuk, marjon, xushbo‘y moy, tumorlarini,
20 Muhr uzuklarini, burundagi sirg‘alarini,
21 Tortib olar shohona libosini,
Nafis ko‘ylaklari, nimchalari, karmonlarini,
22 Ko‘zgulari, zig‘ir liboslarini,
Tillaqoshlariyu harir ro‘mollarini.
23 Xushbo‘y hid o‘rniga ulardan sassiq hid keladi,
Kamarlar o‘rniga arqon bog‘lab yuradi,
Turmaklangan soch o‘rniga kal bosh bo‘ladi,
Bashang kiyim o‘rniga qanor kiyadi,
Ha, go‘zallik o‘rniga asirlik tamg‘asi bo‘ladi.
24 Mana, yigitlari qilichdan yiqilib qoladi,
Botir erkaklari jangda qirilib ketadi.
25 Quddus darvozalari yig‘lab, aza tutadi.
Sion bo‘m–bo‘sh bo‘lib, yerda o‘tiribdi.

4–BOB

1 O‘sha kuni yetti ayol bir erkakni tutib olib, shunday deydi:
“O‘z nonimizni yeymiz,
O‘z kiyimimizni kiyamiz.
Sharmandaligimizdan bizni qutqaring,
Bizni sizniki deb bilishsa bo‘ldi.”

2 O‘sha kuni Isroildagi omon qolganlarga
Yurtning hosili iftixor, ulug‘vorlik bo‘ladi.
Ha, Egamning novdasi ko‘rkam, ulug‘vor bo‘ladi.
3 Quddusda omon qolganlar,
O‘sha Sion shahrida qolganlar
“Muqaddas” deb ataladi.
Ular Quddusda hayot kitobiga yozilgan.
4 Adolat ruhi, otash ruhi ila
Rabbiy yuvib tashlaydi

Quddus xalqining harom–xarishini,
Poklaydi Sionning qon dog‘larini.
5 Jamoa uzra kunduzi bulutni,
Tunlari tutunni, yorug‘ alangani*
Egam barpo qiladi butun Sion tog‘ida*.
Ha, o‘sha hashamatli shahar uzra
Egam O‘zi soyabon bo‘ladi.
6 U soya, ko‘lanka bo‘ladi kunduzi issiqdan,
Panoh, boshpana bo‘ladi bo‘ronu yomg‘irdan.

5–BOB

Uzumzor qo‘shig‘i

1 Qo‘shiq aytay suyukligimga,
Aytay muhabbat qo‘shig‘imni
Uning uzumzori haqida.
Suyganimning uzumzori bor edi
Tuprog‘i unumli tepalikda.
2 Yerni ag‘darib, toshlardan tozaladi,
O‘tqazdi eng sara uzum tokini,
Qorovul minorasini o‘rtaga qurdi.
Uzum siqish chuqurini* tayyorladi,
Uzumlarning pishishini U kutdi,
Ammo hosil ituzum bo‘ldi.

3 Endi, ey Quddus ahli, Yahudo xalqi,
Hakam bo‘ling Men bilan uzumzorim o‘rtasida.
4 Yana nima qilishim kerak edi uzumzor uchun?
Unga qilmaganim yana ne qoldi?!
Uzumlarning pishishini kutganimda,
Nega hosil ituzum bo‘ldi?!

5 Endi Men sizlarga aytaman
Nima qilishimni uzumzorimni.
Chetan devorini olib tashlayman,
Hamma bor narsasi yeb bitirilsin.
Uning devorini buzib tashlayman,
Uzumzorim payhon qilinsin.
6 Men uni xarobazor qilaman,
Endi toklarim butalmaydi,
Yeri hech yumshatilmaydi.
Tikanlar, changalzor bilan qoplansin,
Bulutlarga ham amr beraman,
Uzumzorimga yomg‘ir yog‘dirmasin.

7 Sarvari Olamning uzumzori — Isroil xalqi,

Egamning xush koʻrgan koʻchati — Yahudo odamlari.
Ulardan toʻgʻrilik kutgandi, qotillik koʻrdi,
Ulardan adolat kutgandi, faryod eshitdi.

Ishayo adolatsizlikni qoralaydi

8 Ey koʻplab uy sotib oladiganlar!
Holingizga voy!
Ey dalasiga yana dala qoʻshib oladiganlar!
Holingizga voy,
Ha, boshqalarga joy qoldirmaysiz,
Endi bu yurtda yolgʻiz oʻzingiz qolib ketasiz.

9 Sarvari Olamning soʻzi ayon boʻldi menga:
“Koʻplab uylar, shubhasiz, xarob boʻladi,
Katta, chiroyli uylar kimsasiz qoladi.
10 Yigirma tanob* uzumzor ikki koʻza* sharob beradi,
Oʻn savat* urugʻ arang bir savat* hosil beradi.”

11 Holingizga voy, ey erta tongda turib,
Oʻtkir ichimlik ortidan quvadiganlar!
Holingizga voy, ey tunda allamahalgacha
Sharob ichib qiziydiganlar!
12 Ziyofatlaringizda lira, arfa,
Childirma, nay chalinar, sharob ichilar!
Biroq Egamning ishlarini anglamaysizlar,
Uning qoʻllari ijodini koʻrmaysizlar!
13 Shu bois, xalqim Meni bilmagani tufayli surgunga ketdi.
Amaldorlari ochlikdan oʻlib ketdi,
Koʻplari tashnalikdan oʻrtanib yondi.
14 Ha, behad ochilib ketdi
Oʻliklar diyorining* ishtahasi,
Cheksiz ochilib ketdi uning ogʻzi,
Tushib ketdi u yerga Quddusning obroʻsi,
Oʻliklar diyoriga ketdi koʻp odami,
Shovqin–suroni, yuksalgani ham.
15 Shunday qilib, inson sharmanda boʻldi,
Odamzod tiz choʻktirildi,
Kiborlarning koʻzlari yerga qaradi.
16 Biroq Sarvari Olam adolati ila yuksaladi.
Mana, Muqaddas Xudo odilligi ila
Muqaddasligini koʻrsatdi.
17 Qoʻzilar oʻtlaydi endi oʻzlarining
Yaylovida oʻtlaganday,
Sarson boʻlib yurgan boʻrdoqilar
Yeb toʻyadi vayronalarda*.

18 Holingizga voy! Ey yolg‘onni arqon qilib
Ayblarini tortib keladiganlar!
Ey aravaning arqoni bilan
Gunohlarini sudrab keladiganlar!
19 Sizlar aytasiz: “Qani, tez bo‘lsin,
Qiladiganini darrov qilsin,
Toki biz buni ko‘raylik.
Isroil xalqining Muqaddas Xudosining maqsadi
Zudlik bilan amalga oshsin,
Toki biz buni bilib olaylik.”

20 Holingizga voy, ey yomonni yaxshi,
Yaxshini yomon deb aytadiganlar,
Zulmatni nur bilan,
Nurni esa zulmat bilan almashtiradiganlar!
Ey achchiqni shirin,
Shirinni achchiq deydiganlar!

21 Holingizga voy, ey o‘zini dono deb bilganlar,
O‘zlarini idrokli deb hisoblaganlar!

22 Holingizga voy, ey sharob ichishda
Qahramon bo‘lganlar,
Ichkilikni aralash–quralash ichishda
Bahodirlik ko‘rsatganlar.
23 Pora evaziga aybdorni haq deb topganlar,
Solihlarning to‘g‘riligini inkor qiladi ular!
24 Shu bois alanganing tili somonni yutganday,
Ularning ildizi chirib ketadi,
Quruq xashak olovda kuyib bitganday,
Ularning g‘unchasi changday uchib ketadi.
Sarvari Olamning ta’limotini ular rad qildi,
Isroil xalqining Muqaddas Xudosining so‘zidan nafratlandi.
25 Ha, Egamning g‘azabi O‘z xalqiga qarshi alangalandi,
U xalqqa qarshi qo‘l ko‘tarib, ularni urdi.
Shunda tog‘lar larzaga keldi,
Ko‘chalarda jasadlar axlat bo‘ldi.
Shunda ham Egam g‘azabidan tushmadi,
Uning qo‘li hamon
Isroilga qarshi ko‘tarilgancha turardi.

Xudo, Isroilga hujum qilsin deb, begona xalqlarni olib keladi

26 Uzoqdagi xalqlarga* Egam belgi beradi,
Yerning chetidagi xalqlarga ishora yuboradi.
Ana, ular kelayotir bu yerga tez, shiddat ila!
27 Ular na charchaydi, na yiqiladi,

Na mudraydi, yo na uxlaydi,
Na kamari boʻshaladi,
Na chorigʻining iplari uziladi.
28 Ularning oʻqlari oʻtkirlangan,
Hamma yoylari tortib bogʻlangan,
Otlarining tuyoqlari chaqmoqtoshga oʻxshar,
Aravalarining gʻildiraklari quyun kabidir.
29 Ular sherga oʻxshab boʻkiradi,
Yirtqich sher kabi oʻkiradi,
Oʻkirib, oʻljasini ushlaydi, olib ketadi,
Hech kim uni qutqarib ololmaydi.
30 Oʻsha kuni guvullagan dengizga oʻxshab
Yurt uzra oʻkirish eshitiladi.
Ana yurtga qarang!
Zulmat va kulfat,
Bulutlar tufayli nur xira boʻldi.

6–BOB

Xudo Ishayoni paygʻambarlikka chaqiradi

1 Shoh Uzziyo vafot etgan yili* men yuqoriga yuksalgan Rabbiyning taxtda oʻtirganini koʻrdim. Uning libosi etaklari Maʼbadni toʻldirgan edi. 2 Uning tepasida seraflar* shay turardi, har birining oltita qanoti bor edi. Ular ikki qanoti ila yuzlarini toʻsgandi, ikki qanoti ila oyoqlarini toʻsgandi, qolgan ikki qanoti bilan uchayotgan edi. 3 Ular bir–biriga hayqirishardi:

"Muqaddasdir, muqaddasdir,
Muqaddasdir Sarvari Olam!
Uning ulugʻvorligi
Butun olamni toʻldirgan!"

4 Ularning hayqirgan ovozlari Maʼbadni poydevorigacha titratib yubordi, Maʼbad tutun bilan toʻlib borardi. 5 Men shunday dedim: "Shoʻrim qursin! Oʻldim endi! Oʻz koʻzlarim bilan oʻsha Shohni, Sarvari Olamni koʻrdim. Axir, men ogʻzi nopok bir odamman, ogʻzi nopok xalq orasida yashayman!"

6 Seraflardan biri men tomon uchdi, qoʻlida koʻmir choʻgʻi bor edi. U oʻsha choʻgʻni otashkurak bilan qurbongoh ustidan olgan edi. 7 Koʻmir choʻgʻini ogʻzimga tekkizib, shunday dedi: "Qara, bu choʻgʻ lablaringga tegdi, endi ayblaring yuvildi, gunohlaringdan forigʻ boʻlding."

8 Shunda men Rabbiyning ovozini eshitdim: "Kimni yuboraman? Biz uchun kim boradi?" Men aytdim: "Men shu yerdaman, mana, yuborgin meni." 9 U shunday dedi:

"Bor, mana shu xalqqa ayt:
«Xoʻp, tinglayveringlar, baribir, tushunmaysiz,
Qarayveringlar, baribir, anglab yetmaysiz.»
10 Ey Ishayo, bu xalqqa gapir.

So‘zlaring ularning aqlini o‘tmas qiladi,
Gaplaring dastidan quloqlari garang bo‘ladi,
Ularning ko‘zlari yumilib qoladi.
Shunda ko‘rmay qoladi ko‘zlari,
Eshitmay qoladi quloqlari,
Anglamay qoladi aqllari,
Ular Menga qaytmaydilar,
Ular shifo topmaydilar.”

11 So‘radim: “Ey Rabbiy, qachongacha?” U aytdi:

“Shaharlar vayron bo‘lib,
Kimsasiz qolgunlaricha,
Xonadonlarda biron jon qolmay,
Yurt tamom vayron bo‘lguncha.
12 Oxiri, Men, Egangiz, hammani uzoqqa jo‘nataman,
Yurtda esa ko‘plab tashlandiq joylar bo‘ladi.
13 Xalqning o‘ndan biri qolsa ham
Yondirib yuboriladi.
Ammo qayrag‘och, eman daraxtlari kesilganda
To‘nkalari qolgani kabi,
Undan ham to‘nka qoladi.
Uning to‘nkasi Muqaddas urug‘dir.”

7–BOB

Shoh Oxozga xabar beriladi

1 Uzziyoning nabirasi, Yo‘tomning o‘g‘li Oxoz* hukmronligi davrida Oram shohi Ratan va Isroil shohi Ramaliyo o‘g‘li Pekax Quddusga kelib, saf tortdilar. Ammo uni bosib ololmadilar. 2 Dovud xonadoniga*: “Oram lashkari Efrayim* xalqi bilan ittifoq tuzibdi” degan xabar yetib keldi. Shoh Oxoz hamda xalq shunchalik vahimaga tushdilarki, hammalari shamolda tebrangan daraxtday titradilar.

3 Shunda Egamiz Ishayoga dedi: “Sen o‘g‘ling Sheryosub* bilan katta yo‘lga chiqqin. U yo‘l kir yuvuvchining dalasi tomon ketgan. Yuqori hovuz arig‘ining oxiri bo‘lgan o‘sha joyda Oxozni kutib olib, 4 unga shunday deb aytinglar: «O‘zingni bos, tinchlan, qo‘rqma! Oram shohi Ratan va Ramaliyo o‘g‘li g‘azabga mingan, ammo ularni deb qo‘rquvdan titramagin. Ikkovi ham yonib bitayotgan g‘o‘laday. 5 Efrayim va Ramaliyo o‘g‘li bilan birga, Oram senga qarshi fitna qilib, shunday dedi: 6 ‘Yahudoga bostirib boramiz. Xalqini vahimaga solib, qo‘lga olamiz. So‘ng To‘val o‘g‘lini* Yahudo shohi qilib tayinlaymiz.’
7 Ammo Egamiz Rabbiy aytmoqda:

Bu fitna amalga oshmas,
Bu hech qachon yuz bermas.
8 Oramning boshi Damashqdir,
Damashqning boshi Ratandir,
Oltmish besh yildan so‘ng Efrayim

Qirilib bitar, aslo xalq boʻlmas.
9 Efrayimning boshi Samariyadir,
Samariyaning boshi Ramaliyo oʻgʻlidir.
Agarda soʻzimga ishonmasangiz,
Mustahkam tura olmaysiz.»”

Immanuil toʻgʻrisida bashorat

10 Egamiz yana Ishayo orqali Oxozga shunday dedi:
11 — Aytganlarimni amalga oshirishimga ishonch hosil qilishing uchun, Men, Egang Xudodan oʻzingga biror alomat soʻra, oʻsha alomat oʻliklar diyoridan* chuqur yoki falak toqidan baland boʻlsin.
12 Shunda Oxoz Ishayoga:
— Soʻramayman, Egamni sinamayman, — dedi.
13 Shunda Ishayo dedi:
— Eshiting, ey Dovud xonadoni! Odamlarni bezdirganingiz sizlarga kamlik qilganday, Xudoyimni ham bezdirasizlarmi?! 14 Endi Rabbiyning Oʻzi sizlarga alomat beradi: ana, qiz* homilador, u oʻgʻil tugʻadi va Uning ismini Immanuil* qoʻyadi. 15 Oʻsha bola yomonni rad etib, yaxshini tanlashni biladigan yoshga yetganda qatiq va asal* yeydi. 16 Ha, oʻsha vaqt kelmasdan oldin, sizlarni vahimaga solayotgan ikkala shohning yerlari tashlandiq boʻladi. 17 Egam sizning va xalqingizning, ota–bobolaringizning xonadoni boshiga shunday kunlarni soladiki, Efrayim Yahudodan ajralib chiqqandan beri* bunday kunlar ularning boshiga tushmagan: evoh, Ossuriya shohi kelmoqda!
18 Oʻsha kuni Egam Misr daryolarining yuqori oqimidagi pashshalarga, Ossuriya yurtidagi arilarga ishora qiladi. 19 Shundan keyin ularning hammasi kelib, chuqur soyliklarga, qoyalarning yoriqlariga joylashadilar. Hamma chakalakzorlarga, hamma yaylovlarga oʻrnashib oladilar.
20 Oʻsha kuni Rabbiy Ossuriya shohini ishlatadi. U Rabbiyning qoʻlida Furot daryosining ortida ijaraga olingan ustara kabi boʻladi. Ha, soqolingizni butunlay qirib tashlaydi, boshu oyogʻingizda birorta tuk qolmaydi*. 21 Oʻsha kuni bir odam ikki qoʻy va bir gʻunajinni tirik saqlab qoladi. 22 U odamda shuncha koʻp sut boʻladiki, u qatiq yeydi. Yurtda qolganlarning hammasi qatiq va asal yeydi. 23 Ming kumush tangaga* arziydigan, toklarga toʻla bir uzumzor bor. Oʻsha kuni mana shu uzumzor ham chakalakzoru tikanzorlarga aylanadi. 24 Shundan keyin odamlar u yerga kamonu oʻqlari bilan boradigan boʻladi. 25 Bir zamonlar ishlov berilgan, ekin ekilgan barcha tepaliklarga endi sizlar bormaysizlar. Axir, chakalakzoru tikanzorlardan qoʻrqasizlar–da. U yerlarda mollar oʻtlaydi, u yerlarni qoʻy–echkilar toptaydi.

8–BOB

Ishayoning oʻgʻli xalq uchun alomat

1 Shunda Egamiz menga aytdi:
— Katta lavha olib, unga: “Moxirshalolxoshbozga* tegishli”, deb tushunarli qilib yoz. 2 Men ruhoniy Uriyo bilan Yabarakiyo oʻgʻli Zakariyoni Oʻzimga ishonchli guvohlar qilib tayinlayman.
3 Shundan keyin men xotinim bilan yotdim. U homilador boʻlib, oʻgʻil tugʻdi. Shunda Egamiz menga dedi:

— Uning ismini Moxirshalolxoshboz deb qo‘y. 4 Bola hali “ota”, “ona” deb aytishni
o‘rganmasdan oldin, Ossuriya shohi Damashqning boyliklarini va Samariyadan tortib
olgan o‘ljalarini olib ketadi.
5 Egamiz yana menga gapirib:
6 — Bu xalq tinch oqadigan Shilo‘vax suvlaridan* voz kechdi, Ratan va Ramaliyo o‘g‘li
Pekaxdan ko‘ngillari shod bo‘ldi, — dedi. 7 — Shuning uchun Men, Rabbiy, xalqimga
qarshi Ossuriya shohini va uning shonli lashkarini boshlab kelmoqdaman. Ular Furot
daryosining bahaybat to‘lqinlari kabidir. Hamma irmoqlardan oshib, hamma
qirg‘oqlardan toshib ketadi. 8 Sel kabi Yahudoni bosadi, uning bo‘g‘ziga yetib keladi.

Shunga qaramay, Xudo biz bilandir!*
U yoyilgan qanotlari panohida yurtimizni omon saqlaydi!
9 Ey xalqlar, safarbar bo‘lavering, halokatga yo‘liqasiz!
Ey uzoq yurtlardagi jamiki ellar, eshiting!
Jangga bel bog‘layvering, ammo halokatga yo‘liqasiz!
Ha, bel bog‘layvering, ammo halok bo‘lasiz!
10 Puxta reja qilavering, ammo rejangiz puchga chiqadi,
So‘z beravering, ammo amalga oshmaydi,
Chunki Xudo biz bilandir!

11 Egam qudrati bilan meni O‘ziga jalb qilib, shunday ko‘rsatma berdi:
— Bu xalqning yo‘lidan bormanglar. 12 Bu xalq isyon deb aytadigan hamma narsani
sizlar isyon deb bilmanglar. Ularni qo‘rquvga soladigan narsalardan sizlar qo‘rqmanglar,
vahimaga tushmanglar. 13 Sizlar Men, Sarvari Olamni muqaddas deb izzat qilinglar.
Faqat Mendan qo‘rqing, faqatgina Men sizni vahimaga solay. 14 O‘shanda Men O‘zim
sizlarga panoh bo‘laman. Ammo Isroilning ikkala xonadoni uchun Men qoqiltiradigan
tosh, to‘sqinlik qiladigan qoya, Quddus aholisi uchun tuzoq va to‘r bo‘laman. 15 Ulardan
ko‘plari qoqiladi, yiqilib, burda–burda bo‘ladi. Ular tuzoqqa tushib, asir bo‘ladi.
16 Ey shogirdlarim, Egam menga bergan bu so‘zlarni avaylab asrang. 17-18 Sarvari
Olam Sion tog‘ida maskan qilgan. U Yoqub naslidan yuzini yashiryapti, ammo men Uni
kutaman, umidim Undadir. Mana, qarang, Egam bergan farzandlarim bilan birga men
shu yerdaman! Isroilda biz belgi va alomatmiz*.
19 Xalqlar sizlarga: “Arvoh chaqiruvchilarga boringlar, g‘alati tovush chiqarib,
tushunarsiz so‘zlarni pichirlab aytadigan folbinlarga maslahat solinglar”, deb aytsalar,
sizlar o‘z Xudoyingizga bormaysizmi?! Axir, tiriklar o‘liklardan nasihat izlab boradimi?!
20 Arvoh chaqiruvchilarga borishni maslahat berganlarga ro‘shnolik bo‘lmaydi. Sizlar
ularga emas, Xudoning yo‘l–yo‘riqlari va ta’limotiga maslahat soling*. 21 Sizlarni noto‘g‘ri
yo‘lga boshlagan o‘sha xalqlar bu yurt bo‘ylab o‘tadi, ular och, iztirobda. Och qolib,
g‘azablanib, shohini va xudolarini la’natlaydi. Yuqoriga qaraydi, 22 yerga qaraydi. Ana,
kulfat va zulmat, g‘am va ofat. Ular yo‘q bo‘lib ketadi.

9–BOB

Ishayo bo‘lajak shoh haqida bashorat qiladi

1 Kulfat qamragan bu yurtda endi azob bo‘lmaydi. Oldin Zabulun va Naftali yurti*

sharmanda bo‘lgan edi. Ammo kelajakda dengiz bo‘yidagi yerlar, Iordanning narigi tomonidagi o‘lka* va g‘ayriyahudiylar Jalilasi* ulug‘lanadi.

2 Zulmatda yurgan xalq yorqin ziyoni ko‘rdi,
O‘lim soya solgan yurt aholisi ustiga nur sochildi.
3 Bu xalqni Sen ko‘paytirgansan,
Ularga ko‘p shodlik ato qilgansan.
Hosil vaqtidagi mamnunlik kabi,
O‘ljalarin bo‘lishib olgan paytdagi kabi,
Ular huzuringda quvonchga to‘lgan.
4 Bu xalqning og‘ir bo‘yinturug‘ini,
Yelkasidagi tayog‘ini
Sen sindirib tashlagansan.
Zolimlarning kaltagini
Midiyon xalqi kabi,
Mag‘lub qilgansan*.
5 Jangda kiyilgan etiklar,
Qonga belangan hamma kiyim
Olovga tashlanib, yoqilajak.

6 Mana biz uchun bola tug‘ildi,
O‘g‘il bizga berildi.
Hukmronlik Uning zimmasidadir,
Nomi Ajoyib Maslahatchi*, qudratli Xudo,
Abadiy Ota, Tinchlik Shahzodasidir.
7 Dovudning taxtida
Uning hukmronligi ortib boradi.
Tinchlik to abad hukm suradi.
Hozirdan boshlab, to abad
U adolat va haqiqat ila
Shohligini mustahkamlab, barqaror qiladi.
Sarvari Olam jon kuydirib,
Buni bajo aylaydi.

Xudoning Isroilga bo‘lgan g‘azabi

8 Yoqub nasliga qarshi Rabbiy bir so‘z yubordi,
Uning so‘zi Isroil xalqiga yetib keldi.
9 Efrayimda*, Samariyada yashaydiganlar,
Jamiki xalq bundan xabardor bo‘ldi.
Ular dimog‘dorlik, kiborlik ila aytmoqda:
10 “G‘ishtin imoratlar vayron bo‘lsa,
Yo‘nilgan toshlar bilan quramiz.
Shikamora–anjir daraxtlari* kesilgan bo‘lsa,
Ularning o‘rniga sadr daraxtlarini* ekamiz.”
11 Ana, Oram shohi Ratanga qarshi
Egam uning dushmanlarini qo‘zg‘atdi,

G‘animlarini da’vat qildi.
12 Sharqdan Oramlar, g‘arbdan Filistlar
Og‘izlarin katta ochib, Isroilni yutib yubordi.

Ammo shunday bo‘lsa ham,
Egam tushmas g‘azabidan,
Uning qo‘li hamon
Isroilga qarshi ko‘tarilgan.

13 Bu xalq Sarvari Olamga yuz burmadi,
Jazo bergan Zotga ular qaytmadi.
14 Shunda Egam bir kunda
Isroilning boshini va quyrug‘ini,
Xurmosini va qamishini kesib oldi*.
15 Oqsoqollar, amaldorlar boshdir,
Soxta payg‘ambarlar quyruqdir.
16 Ular bu xalqni yo‘ldan adashtirgan,
Ularga ergashganlar boshi berk ko‘chaga kirib qolgan.
17 Hammasi shakkok, qabihlik qilar,
Barcha og‘izlardan ahmoqona so‘z chiqar.
Rabbiy yoshlardan mamnun bo‘lmadi,
Yetim va bevalarga shafqat ko‘rsatmadi.

Ammo shunday bo‘lsa ham,
Egam tushmas g‘azabidan,
Uning qo‘li hamon
Isroilga qarshi ko‘tarilgan.

18 Fosiqlik olovga o‘xshab yonar,
Yeb bitirar butazoru tikanzorlarni.
O‘rmondagi changalzorlarni yondirib,
Balandlarga tutunini o‘rlatadi.
19 Sarvari Olamning qahridan
Yurt yonib bitar,
Xalq olovga yonilg‘i bo‘lar.
Odamlar o‘z yaqiniga shafqat qilmas,
20 Ular o‘ng tarafga hamla qiladilar,
Ammo och qoladilar.
Yutaman deb chap tomonga hujum qiladilar,
Ammo to‘ymaydilar.
O‘z qo‘lining go‘shtini yeydi insonlar.
21 Manashe qabilasi yeydi Efrayim qabilasini,
Efrayim esa Manasheni,
Ikkovi birlashib Yahudoga* hujum qiladi.

Ammo shunday bo‘lsa ham,

Egam tushmas g‘azabidan,
Uning qo‘li hamon
Isroilga qarshi ko‘tarilgan.

10–BOB

1 Ey siz, yovuz farmonlar chiqaradiganlar,
Qonunlar yozib, jabr keltiradiganlar.
2 Kambag‘alni adolatdan mahrum qilyapsiz,
Mazlum xalqimni talayapsiz,
Ovingiz bo‘layotir bevalar,
O‘ljangiz bo‘layotir yetimlar.
3 Qiyomat kuni kelganda, siz nima qilasiz?
Uzoqdan balo kelganda, nima qilasiz?
Yordam so‘rab kimga qochib borasiz?!
Boyligingizni qayerga olib ketasiz?!
4 Yo‘q, asir bo‘lib yiqilib qolasiz,
Yo jasadlar tagida qolib ketasiz.

Ammo shunday bo‘lsa ham,
Egam tushmas g‘azabidan,
Uning qo‘li hamon
Isroilga qarshi ko‘tarilgan.

Xudo takabbur Ossuriyani hukm qiladi

5 Egam aytar: “Mana Ossuriya!* G‘azabimning hassasi!
Uning qo‘lidadir qahrimning tayog‘i!
6 Men uni shakkok elga qarshi yuboraman,
G‘azabimni o‘sha xalqqa qarshi sochaman,
Ovlab, o‘lja qil, deb unga amr qilaman.
Xalqlarni loyday oyoq osti qiladi u.
7 Ammo Ossuriya Mening qurolim ekanini
Xayoliga ham keltirmas,
Bular haqida u o‘ylamas ham.
Uning fikri–yodi:
Xalqlarni qirib tashlashdir,
Bitta qo‘ymay ularni yo‘q qilishdir.
8 Ossuriya shohi shunday o‘ylaydi:
«Lashkarboshilarim shohlar emasmi?!
9 Xalno shahrini Karxamish shahriday vayron qilmadikmi?!
Xomat ham Arpadday* quladi–ku!
Samariya Damashq* kabi emasmi?!
10 Olganimday behuda butlar shohliklarini,
Olaman Quddusu Samariyaning sanamlarini.
11 Ne qilgan bo‘lsam Samariya va uning sanamlarini,
Shunday qilaman Quddusu uning butlarini.»”

12 Ammo Rabbiy tuzgan rejalarini Sion tog‘ida va Quddusda amalga oshirgandan
keyin, shunday deydi: “Endi takabbur, kibor Ossuriya shohi bilan hisob–kitob qilaman.
13 Axir, Ossuriya shohi shunday degan edi:

«O‘z kuchim bilan bularni amalga oshirdim,
Donoligim bilan qildim, axir, idrokliman.
Xalqlarning chegarasini yo‘q qildim,
Ularning xazinalarini o‘lja qilib oldim.
Qudratli shohlarini taxtdan uloqtirdim.
14 Qush iniga qo‘l suqib tuxum yiqqani kabi,
Xalqlarning boyliklarini to‘pladim.
Tashlab ketilgan tuxumlarni qanday to‘plasalar,
Jamiki yurtlarni men shunday yig‘ib oldim.
Yo qanot qoqqan, og‘zin ochgan,
Yo ovozin chiqargan birov bo‘lmadi.»”

Ishayoning Ossuriya shohiga javobi

15 Bolta maqtanarmi uni ishlatganga?!
Arra o‘zini maqtaydimi uni qo‘lga olganga?!
Kaltak ushlaganni kaltakning o‘zi ko‘taradimi?!
Hassa o‘zini ushlaganni ko‘taradimi?!
16 Ey Ossuriya,
Shu bois Sarvari Olam — Rabbiy
Og‘ir xastalikni yuborar pahlavonlaringiz orasiga.
Kasalliklarining qizg‘in pallasida
Ularning badanlaridan o‘t chiqadi,
Ular go‘yo lov–lov etib yonadi.
17 Isroilning Nuri yolqin bo‘ladi,
Isroil xalqining Muqaddas Xudosi olov bo‘ladi.
Olov yondirib, tikanzoru changalzorlarini
Bir kunda yamlab yutadi.
18 Ossuriyaning muhtasham o‘rmonlari
Va unumdor dalalari
Og‘ir xastalikka yo‘liqqan insonday,
Tamomila xarob bo‘ladi.
19 O‘rmondagi daraxtlar shunchalik oz qolarki,
Hattoki yosh bola ham ularni sanay oladi.

Xudo O‘z xalqini tinchlantiradi

20 O‘sha kuni Isroilning qolgan–qutgani,
Yoqub naslining qutulganlari
Boshqa suyanmaydi o‘z zulmkorlariga*,
Ular sadoqat bilan tayanadi
Isroil xalqining Muqaddas Xudosi — Egamga.
21 Yoqub naslining qutulganlari, omon qolganlari

Qaytadi* qudratli Xudoga.
22 Ey Isroil, sening xalqing
Dengiz qumiday ko‘p bo‘lsa ham,
Endi ulardan faqatgina sanoqli odamlar qaytadi.
Zero, “Qirg‘in bo‘lsin”, deya qaror qilingan,
Xudo odil hukmini O‘z xalqining boshiga soladi.

23 Shubhasiz, butun yer yuzida qiyomat bo‘ladi, zotan, Sarvari Olam — Rabbiy shunday qaror qilgan.
24-25 Shu bois Sarvari Olam — Rabbiy shunday aytmoqda: “Ey xalqim, Quddus* ahli! Misrliklar kabi, Ossuriyaliklar sizlarga tayoq ko‘taradilar, sizlarni qamchi bilan uradilar. Ammo hademay g‘azabimni bosaman, ulardan qo‘rqmanglar. Endi Ossuriyaliklarga qahrimni sochib, ularni qiraman. 26 Ha, Midiyonlarni Oriv qoyasida shunday qirgan edim*. Hassamni ko‘tarib, Misr lashkarini dengizda g‘arq qildim*. Endi xuddi shunday qilib, Men, Sarvari Olam, ularga qarshi qamchimni ko‘taraman. 27 O‘sha kuni Ossuriyaning yukini yelkangizdan uloqtiraman. Uning bo‘yinturug‘i bo‘yningizdan olib tashlanadi. Ha, bo‘yinturuq yo‘q qilinadi, chunki sizlar kuchga to‘ldingiz*.”

28 Ossuriya lashkari Oyaz shahriga* keldi,
Migron bo‘ylab o‘tdi,
Qurol–aslahasini Mixmashda shay qildi.
29 Ular Gebo so‘qmog‘ini kesib o‘tdilar–u,
Rama xalqi vahimaga tushib qoldi,
Ular Shoulning shahri Givoda omonat to‘xtadi–yu,
Shahar ahli qochib ketdi.
30 Faryod qiling, ey Galim ahli!
Eshit, ey Laysho!
Ey sho‘rlik Onoto‘t!
31 Madmenax ahli qochib ketdi,
Gebim ahli, panoh topay deb, uchib ketdi.
32 O‘sha kuni Ossuriya lashkari Nav shahrida turadi.
Quddus shahri joylashgan tepalikka —
Aziz Sion tog‘iga qarab mushtini ko‘taradi.

33 Qara, Sarvari Olam — Rabbiy
Qudratli kuchi ila daraxt shoxlarini kesib tashlaydi,
Baland daraxtlarni qirqib tashlaydi,
Yuksalganlarini yerga uradi.
34 U bolta bilan kesib tashlaydi o‘rmondagi changalzorni,
Qudratli Xudo qulatib yuboradi Lubnon daraxtlarini.

11–BOB

Tinchliksevar shohlik haqida bashorat

1 Essayning* tomiridan novda o‘sib chiqadi,
Ha, uning ildizidan ko‘chat yoyiladi.

2 Uning ustida bo‘ladi Egamizning Ruhi.
Bu donolik hamda aql–idrok,
Nasihat va kuch–qudrat Ruhidir,
Egamizni bilish va Undan qo‘rqish Ruhidir.
3 O‘sha Essay farzandi
Egamizdan qo‘rqishdan zavq olar,
Hukm qilmas ko‘zlari ko‘rgani ila,
Ajrim qilmas eshitganlari ila.
4 U adolat ila bechorani hukm qiladi,
To‘g‘rilik ila yer yuzi mazlumlarini ajrim qiladi.
Bir og‘iz so‘zi bilan zolimni jazolaydi,
Nafasi ila fosiqni o‘ldiradi.
5 Adolat uning belidagi kamar bo‘ladi,
Haqqoniyat uning belidagi belbog‘ bo‘ladi.

6 Shunda bo‘ri qo‘zi bilan yashar,
Sirtlon bilan uloqcha birga yotar,
Buzoq, sher, bo‘rdoqi birgadir,
Yosh bola ularni yetaklab yurar.
7 Sigir bilan ayiq birga o‘tlaydi,
Bolalari ham birga yotadi,
Sher ho‘kizga o‘xshab somon yeydi.
8 Go‘dak qora ilon uyasi ustida o‘ynar,
Yosh bola qo‘lini ilon iniga suqar.
9 Muqaddas tog‘imning* gir atrofida
Ular zarar keltirmas yo chaqmas.
Ha, suvlar to‘ldirganiday dengizni,
Yer yuzi to‘liq bilib oladi Egamizni.

10 Mana, Essayning tomiridan chiqqan* shoh o‘sha kuni xalqlar uchun baland ko‘tarilgan bayroq kabi bo‘ladi. Elatlar maslahat so‘ragani uning huzuriga keladi, Uning maskani ulug‘vorlikka to‘ladi.
11 O‘sha kuni Rabbiy qo‘lini ikkinchi marta uzatadi. U O‘z xalqidan qolganlarini qutqaradi. Ularni Ossuriyadan, Misrning shimoliy va janubiy hududlaridan*, Habashistondan* yig‘ib keladi. Elamdan*, Bobildan*, Xomatdan* va dengiz sohillaridan olib keladi.

12 Elatlarga U belgisini ko‘rsatib,
Isroilning quvilganlarini to‘playdi.
Yer yuzining to‘rt burchagidan yig‘adi
Yahudoning tarqalib ketganlarini.
13 Efrayimning* hasadgo‘yligini qirqadi,
Yahudoning xusumatini to‘xtatadi,
Efrayim Yahudoga hasad qilmas,
Yahudo Efrayimga xusumat qilmas.

14 G‘arbda ular Filistlarga changal soladi,
Birgalikda Sharq xalqini talaydi,
Edom, Mo‘ab* ularga bo‘yin egadi,
Ommon xalqi* tiz cho‘kadi.
15 Egamiz tamomila qirib yuborar
Qizil dengizning qo‘ltig‘ini*.
Furot daryosiga qarshi qo‘l ko‘taradi.
Garmsel* keltirib, jizg‘anak qilib,
Daryoni yetti sayoz irmoqqa bo‘lib tashlaydi,
Irmoqlardan bir–bir hatlab o‘tsa bo‘ladi.
16 Ha, Isroil Misrdan chiqqanda,
Ularga yo‘l ochilganiday
Egamizning xalqidan qolganlarga
Ossuriyadan katta yo‘l ochiladi.

12–BOB

Shukrona qo‘shig‘i

1 O‘sha kuni sen aytasan:
“Senga shukur aytaman, ey Egam,
Mendan g‘azablangan eding,
G‘azabing bosildi, ey Egam,
Menga Sen tasalli berasan!”
2 Sen yana aytasan: “Ha, Xudo najotimdir,
Qo‘rqmasman, U mening umidimdir.
Egamning O‘zi* mening kuch–qudratimdir*,
U mening qutqaruvchimdir.”

3 Shod bo‘lib, najot chashmasidan suv olasiz.
4 O‘sha kuni aytasiz:
“Shukronalar aytaylik Egamizga.
Sajda qilaylik Unga!
Qilgan buyuk ishlarini
Xalqlar orasida ovoza qilaylik,
Nomi yuksalganini yodga solaylik!”

5 Hamdlar ayting Egamizga!
Butun yer yuzida bo‘lgan ovoza
Uning qilgan ajoyib ishlari!
6 Xitob qiling, hayqiring shodlikdan, ey Quddus* ahli,
Buyukdir orangizdagi Isroil xalqining Muqaddas Xudosi.

13–BOB

Xudo Bobilni jazolaydi

1 Omiz o‘g‘li Ishayoga vahiyda Bobil to‘g‘risida ayon bo‘lgan bashorat.

2 Yalang tepalik uzra bayroq koʻtaring,
Bobilga qarshi jangchilarni safarbar qiling.
Hammasini jangga da’vat eting,
Ular aslzodalar darvozalarini ishgʻol qilsin.
3 Egam aytar: “Men Oʻzim tanlaganlarga amr berib,
Qahrimni koʻrsatsin deb, jangchilarimni yigʻdim,
Gʻalabamdan sevinadiganlarni toʻpladim.”

4 Qirlardagi olomonning tovushi
Oʻxshaydi buyuk xalqning ovoziga.
Ana, shohliklarning shovqin–suroni!
Elatlar yigʻilmoqda.
Jang qilmoqqa lashkarini
Sarvari Olam tayyorlamoqda.
5 Kelayotir ular uzoq yerlardan,
Ha, osmon gumbazining bir burchidan.
Egam va Uning gʻazab qurollari
Vayron qiladi butun yer yuzini.

6 Faryod qil, Egamizning kuni* yaqin!
Ha, Qodir Xudo kulfat yuboradi!
7 Hamma qoʻllardan darmon ketadi,
Har bir inson vahimaga tushadi.
8 Ular dahshatga tusharlar,
Dardu iztirob ularni chulgʻar,
Toʻlgʻoq tutgan ayolday bukchayib qolar.
Bir–biriga qoʻrquv ichra qarar,
Ularning yuzlari lovullab yonar.

9 Mana, kelayotir Egamizning kuni!
Alanga olayotir gʻazabu qahr, dahshat.
Vayronaga aylantirar yer yuzini,
Yer yuzidan qirib tashlar gunohkorlarni.
10 Ha, samodagi yulduzlar, burjlar
Taratmaydi oʻz yorugʻligini.
Quyosh chiqsa ham, zulmat boʻladi,
Oy oʻz nurini sochmaydi.

11 Egam aytar:
“Olam bilan hisob–kitob qilaman qabihligi uchun,
Fosiqlar bilan ularning gunohi uchun,
Manmanlarning kiborligiga chek qoʻyaman,
Takabburlarni dimogʻdorligi uchun yerga uraman.
12 Insonni kamyob qilarman sof oltindan ham,
Odamni Ofir oltinidan ham.

13 G‘azabim alangalangan kun
Samoni titratib yuborarman.
Men, Sarvari Olamning g‘azabidan
Zamin qo‘zg‘aladi o‘z o‘rnidan.

14 Shunda inson ovdagi jayronday bo‘lar,
Cho‘ponsiz qolgan suruvday bo‘lar,
Har biri o‘z xalqiga qaytib ketadi,
Har biri o‘z yurtiga qochib boradi.
15 Topilganlarning har biri nayzaga ilinadi,
Qo‘lga tushgan har kim qilichdan o‘tkaziladi.
16 O‘zlarining ko‘z o‘ngida
Chaqaloqlari tilka–pora bo‘ladi.
Uylari talon–taroj bo‘ladi,
Xotinlariga tajovuz qilinadi.

17 Mana, Midiyaliklarni* ularga qarshi qo‘yaman,
Midiyaliklarga kumushning hech keragi yo‘q,
Ular oltinni ham istamaslar.
18 Ularning o‘qlari yoshlarni qiradi,
Shafqat ko‘rsatmaydi ular bolalarga,
Rahm qilmaydi ona qornidagilarga.
19 Bobil shahri shohliklarning go‘zali,
Bobildir — Bobilliklarning* ulug‘vor durdonasi.
Ammo Men, Xudo, yer bilan yakson qilaman
Xuddi Sado‘m, G‘amo‘ra* kabi uni.
20 Endi u yerda hech kim yashamas,
To abad hech kim uni maskan qilmas.
U yerda hatto chodir qurilmas,
Cho‘ponlar suruvlarini o‘tlatmas.
21 Ammo yovvoyi hayvonlar bu yerda yotar,
Uylar yirtqichlar bilan to‘lar,
U yerda boyqushlar joylashar,
Echkilar u yerda shataloq otar.
22 Uvullashar sirtlonlar qal’alarda,
Chiyabo‘rilar go‘zal saroylarda.

O‘sha vaqt yaqin orada keladi,
O‘sha kun kelmasdan qolmaydi.”

14–BOB

Isroil xalqi surgundan qaytadi

1 Ammo Yoqub nasliga Egam shafqat qiladi,
U yana Isroil xalqini tanlab oladi.
Yoqub nasliga o‘z yerida orom beradi,

Birlashadi musofirlar ular bilan,
Qo‘shiladi Yoqub xonadoni bilan.
2 Xalqlar o‘z yurtlariga Isroilni boshlab boradi,
Ular Isroil xalqining mulki bo‘ladi.
Isroil Egamning yerida xalqlarni qul, cho‘ri qiladi.
O‘zini asir qilganlarni Isroil xalqi asir qiladi,
Zolimlar ustidan u hukmronlik qiladi.

Bobil shohi mazax bo‘ladi

3 Egam sizni qayg‘u, dard–alamdan qutqarganda, sizga azob bergan og‘ir ishdan xalos qilganda, 4 Bobil shohini masxaralab bu so‘zlarni aytasiz:

“Mana, zolimning kuni bitdi–ya!
Zo‘ravon* tamom bo‘ldi–ya!
5 Egam sindirdi fosiqlarning tayog‘ini,
Hukmdorlarning hassasini!
6 Bu hassa xalqlarni rosa urardi,
To‘xtovsiz kaltaklardi,
Xalqlarga g‘azab ila hukmronlik qilardi,
Shafqat qilmay ta’qib qilardi.
7 Jamiki zamin tinch, osuda,
Ular sevinch ila qo‘shiq aytmoqda.
8 Hatto sarv daraxtlari halokatingdan mamnun,
Lubnon sadrlari ham aytar:
«Endi sen chuqurda yotibsan,
Hech kim bizni kesgani kelmas.»

9 O‘liklar diyori* jonlanib qoldi:
Ana, keldi, kutib olaylik, deya.
Qara, uyg‘ondi seni deb
Yer yuzi yo‘lboshchilarining ruhlari.
Taxtlaridan oyoqqa qalqidi
Jamiki xalqlarning shohlari.
10 Ey Bobil shohi!
Hammalari senga qarab aytadi:
«Hatto sen ham bizday nochor bo‘lding–a,
Bizning kunimiz tushdi sening boshingga.»
11 Ulug‘vorliging, kayfu safolar tovushi
Uloqtirildi o‘liklar diyoriga!
Ostingdagi qurtlar ko‘rpachangdir,
Chuvalchanglar sening to‘shagingdir.

12 Qanday qilib tushib ketding samodan,
Ey Zuhra yulduz, Tong o‘g‘li?!
Xalqlarni yerga uloqtirgan eding!
Yerga qulab tushding–ku o‘zing!

13 Ha, o‘zingcha aytgan eding:
«Men chiqib boraman samolarga,
Taxtimni ko‘taraman
Xudoning yulduzlari tepasiga.
O‘tiraman xudolar yig‘iladigan tog‘da,
Shimolning eng chekkasida.
14 Bulutlar tepasiga chiqib boraman,
Xudoyi Taoloday bo‘laman.»
15 Ammo sen uloqtirilgansan o‘liklar diyoriga,
Chuqurlikning tub–tubiga.
16 Ko‘rganlar senga tikilib qoladi,
Ko‘ngillarida shunday o‘y kechadi:
«O‘sha odammi bu zaminni titratgan,
Shohliklarni larzaga solgan?!
17 Shumi olamni sahroga aylantirgan?!
Shaharlarni yer bilan yakson qilgan,
Asirlarni qo‘yib yubormagan?!»
18 Xalqlarning shohi bo‘lganlarning hammasi
Muhtasham qabrlarida yotibdi.
19 Ammo sen uloqtirilgansan
Jirkanch chirik novdaday qabringdan.
Tosh chuqurga tushadigan jasadlar,
Qilichdan qulagan jasadlar
Bo‘lar sening kafaning.
20 Axir, o‘z yurtingni vayron qilgansan,
Xalqingni o‘zing o‘ldirgansan.
Endi ular qatori dafn qilinmassan.
Ey fosiq, sening nasling
To abad tilga olinmas!

21 Otasining* gunohlari uchun
O‘g‘illarini jallodga topshiring.
Ular aslo ko‘tarilmas.
Endi yerga egalik qilmas,
Yer yuzida shaharlar barpo qilmas.”

Xudo Bobilni vayron qiladi

22 Quyidagilar Sarvari Olamning so‘zidir. “Men Bobilga qarshi qo‘zg‘alaman.
Bobildagilarning nomini ham, qolgan–qutganini ham, urug‘–aymog‘ini ham yo‘q
qilaman”, — deb aytmoqda Egamiz. 23 “Men Bobilni tipratikanlarga mulk qilib beraman.
Uni botqoqqa aylantiraman. Xarobazor qilib, supurib tashlayman”, — deb aytmoqda
Sarvari Olam.

Xudo Ossuriyani vayron qiladi

24 Sarvari Olam ont ichib aytdi:

“Ha, Mening belgilaganim bajo bo‘ladi,
Mening rejalashtirganim amalga oshadi.
25 Ossuriya xalqini O‘z yerimda yakson etaman,
Tog‘larimda uni oyoq osti qilaman.
Uning bo‘yinturug‘i yurtimdan olinadi,
Yuki Isroilning yelkalaridan uloqtiriladi.
26 Butun olam uchun shu rejani tuzdim,
Butun xalqlarga qarshi qo‘limni ko‘tardim.”

27 Sarvari Olam reja qilgan!
Qani, buni kim bekor qila oladi?!
U xalqlarga qarshi qo‘l ko‘tardi!
Qani, Uni kim to‘xtata oladi?!

Xudo Filistlarni xonavayron qiladi

28 Shoh Oxoz vafot etgan yili* bu bashorat ayon qilindi:

29 “Bizni urgan tayoq* sindi”, deb
Sevinmangiz, ey Filistlar!
Axir, ilonning tuxumidan qora ilon chiqadi!
Uning bolasi vahimali ajdar bo‘ladi!
30 Mana, qashshoqlarning to‘ng‘ichi to‘yyapti,
Muhtojlar eson–omon yotibdi.
Ammo sizning ildizingizni ochlikdan quritaman,
Qolgan–qutganlaringiz esa qirilib ketasiz.
31 Ey Filistlar, hammangiz
Azadan adoyi tamom bo‘lasiz.
Faryod qil, ey darvoza! Yig‘la, ey shahar!*
Shimoldan* urush hidi chiqayotir,
O‘sha lashkar safdan chiqmay kelayotir.

32 Xalqlarning elchilariga qanday javob berilar?
“Egamiz Quddusni* barqaror qildi.
O‘z xalqi orasida muhtoj bo‘lganlar
U yerda panoh topadi”, javobi shudir.

15–BOB

Xudo Mo‘abni vayron qiladi

1 Mo‘ab* haqida bashorat:

Vayrona bo‘ldi tunda,
Mo‘abdagi Or shahri nidosiz yotar.
Vayrona bo‘ldi tunda,
Mo‘abdagi Xir shahri* nidosiz yotar.
2 Mo‘ab xalqi o‘z xudosining uyiga chiqdi faryod qilgani,
Ha, Dibonliklar sajdagohiga chiqdi nola qilgani.

Har birining sochlari qirilgan,
Har birining soqoli olingan,
Navo va Midavo shaharlari uchun Mo‘ab nola chekar.
3 Ko‘chalarda xalq qanorga o‘rangan*.
Tomlarda, xiyobonlarda faryod qilib,
Hammasi ko‘z yoshlarini to‘kar.
4 Xashbon, Elaley ahli faryod chekar,
Ularning ovozi Yaxazgacha eshitilar.
Mo‘abning qurollanganlari faryod etar,
Ular qo‘rquvdan qaltirar.

5 Yuragim Mo‘ab uchun faryod qiladi,
Qochoqlar qochib borar Zo‘varga,
Eglat–Shalishiyo shahriga.
Luxit tepaligiga ham ular yig‘lab boradi.
Hatto Xo‘ronayim yo‘lida
Ular halokat tufayli fig‘on chekadi.
6 Ha, o‘tlar qurib ado bo‘ldi,
Maysalar tamom bo‘ldi.
Yashillikdan asar qolmadi,
Nimrim suvi xarob bo‘ldi.
7 Endi ular o‘zlari erishgan boyliklarni,
O‘zlarining hamma mol–mulklarini
Arabim soyligi orqali olib ketadi.
8 Faryod yetib borgan Exlayim shahrigacha,
Yig‘i yetib borgan Ber–Ilim shahrigacha,
Mo‘ab yurti ohu nolaga to‘ldi!
9 Ana, Dibondagi suvlar* qon bilan to‘la!
Ammo endi Xudo Dibonga* battarini qiladi.
Mo‘abning qochib qutulganlariga,
Yurtdagi qolgan–qutganlarining boshiga
Sherlarni olib kelaman.

16–BOB

Mo‘ab umidsiz ahvolda qoladi

1 Qo‘zilar yuborgin yurtning hukmdoriga,
Ularni yubor sahro yo‘li orqali
Sela shahridan* aziz Sion tog‘iga.
2 Xuddi darbadar qushlarday
Bo‘lib qolar axir, Mo‘ab ahli.
Uyasidan quvilgan qushlarday
Ular Arnon soyligi* kechuvini g‘urbatda kezadi.
3 Ular shunday deydi:
“Maslahat ber bizga, qaror chiqar!

Kunning o‘rtasida soyangni tun kabi tushir.
Yashirgin quvilganlarni,
Oshkor qilma qochoqlarni!
4 Qochoqlarimiz orangizda yashasin,
Qirg‘in keltiruvchi zo‘ravonlardan
Mo‘abga boshpana bo‘lgin.”

Zolimlar yo‘q bo‘lganda,
Zo‘ravonlik barham topadi.
Talonchilar yurtdan g‘oyib bo‘ladi.
5 Taxt o‘rnatilar sadoqat ila.
Taxtda o‘tirar haqiqatgo‘y bir hukmdor.
Bu hukmdor Dovud xonadonidan kelib chiqar.
U adolatparvar, odillik bilan hukm chiqarar.

6 Ha, eshitganmiz Mo‘abning mag‘rurligini,
Uning chiroyi, kiborligi, boyligini!
Naqadar mag‘rurdir u!
Ammo bularning hammasi yolg‘on!
7 Endi Mo‘ab faryod cheksin,
Hamma Mo‘ab uchun nola qilsin.
Ha, o‘sha Xir–Xarasot* mayizlarini
Hamma qo‘msab, aza tutsin.
8 Mana, holdan toydi Xashbon dalalari,
Sivmo uzumzorlari ham.
Xalqlarning hukmdorlari ezgan
Sivmoning uzum boshlarini.
Ular Yazirgacha yetib bordilar,
Ular sahroda kezib yurdilar.
Novdalari bir vaqtlar o‘sib ketib,
Dengizdan ham oshib o‘tdi.
9 Shu bois Yazir yig‘laganda, men ham yig‘layman,
Ey Sivmo uzumzorlari!
Ko‘z yoshlarim ila sizlarni shalabbo qilaman,
Ey Xashbon, Elaley shaharlari!
Axir, yozgi hosilingiz barham topdi,
Don hosili paytidagi o‘yin–kulgilar to‘xtadi.
10 Bog‘larda shodlik,
Xursandchilik endi bo‘lmas,
Uzumzorlarda qo‘shiq aytilmas,
Shodlik qiyqiriqlari ko‘tarilmas.
Uzum siqish chuqurlarida*
Ishlaydigan hech kim qolmas.
Shodlik qiyqiriqlarini Xudo bostirdi.
11 Shu bois yuragim Mo‘ab uchun

Arfa kabi nola qilar.
Xir–Xarasot* uchun vujudim faryod chekar.

12 Moʻab xalqi kelib, oʻzini toliqtirsa ham,
Sajdagohiga kelib, iltijolar qilsa* ham,
Hech narsaga erishmas.

13 Egamiz bu soʻzlarni Moʻab haqida oldindan aytgan edi. 14 Endi Egamiz aytar: “Hozir juda koʻp boʻlganiga qaramay, yollangan ishchining muddati kabi, uch yildan keyin Moʻabning obroʻsi toʻkilar. Xalqidan qolganlari esa juda oz, zaif boʻlar.”

17–BOB

Xudo Damashq va Isroilni jazolaydi

1 Damashq* haqida bashorat:

“Ana, Damashq endi shahar boʻlmaydi!
U vayronalar uyumiga aylanadi!
2 Aror shaharlari tark etiladi,
Suruvlar maskaniga aylanadi,
Hech kim ularni hurkitmaydi.
3 Efrayim yurtining* qal’asi yoʻq boʻladi,
Damashqning shohligi ketadi.
Oram xalqining omon qolganlari gʻoyib boʻladi,
Bularning hammasi Isroil xalqining
Shuhrati singari barham topadi,
— deb aytmoqda Sarvari Olam. —

4 Oʻsha kuni Yoqub naslining shuhrati yoʻqoladi,
Tanasi ozib–toʻzib ketadi.
5 Mana, oʻroqchilar boshoqlarni oʻrib oladi,
Oʻz qoʻllari bilan don hosilini yigʻishtirib oladi.
Oʻsha dalalarda terilgan bugʻdoy boshoqlariday
Rafa vodiysida* Yoqub naslidan ham ozchilik qoladi.
6 Ha, zaytun daraxti qoqilganda
Daraxt uchida ikki–uch meva qolganday,
Hosildor shoxchalarda toʻrt–besh meva qolganday
Oʻsha boshoqlarda bir–ikki don qoladi”,
— deb bashorat qilar Isroil xalqining Xudosi — Egamiz.

7 Oʻsha kuni har bir odam Yaratuvchiga qaraydi, ularning koʻzlari Isroil xalqining Muqaddas Xudosini koʻradi. 8 Inson qurbongohlarga, qoʻllarining ijodiga qaramaydi, oʻz qoʻli bilan yasagan narsalar — Asheraga* atalgan ustunlarni, tutatqi qurbongohlarini koʻrmaydi.
9 Oʻsha kuni mustahkam shaharlari oʻrmonlardagi tashlandiq joylarga oʻxshab qoladi. Odamlar tashlab ketgan qir tepaliklar kabi boʻladi. Isroil xalqi dastidan bu shaharlar

xarobazorga aylanadi.

10 Axir, sen najotkoring Xudoni unutding,
Panoh bo‘ladigan Qoyangni eslamading.
Mana, sen yoqimli o‘simliklar ekasan,
Begona ko‘chatlarni o‘tqazasan.
11 Ularni avaylab–asrab o‘stirasan,
Tongda urug‘dan kurtak chiqartirasan,
Ammo barcha hosiling yo‘q bo‘ladi.
Faqat dard va alam senga nasib etadi.

12 Qarang, xalqlarning ko‘pligini!
Ular dengiz kabi guvullaydi!
Lashkarlarning hayqirig‘i
To‘lqinlar tovushiday balanddir.
13 Ammo Egam ularga tanbeh beradi,
Xalqlar ham to‘lqinlar kabi yo‘qolib ketadi.
Ular uzoqlarga qochib qoladi.
Tog‘lardagi shamolda uchgan xas–cho‘p kabi quviladi,
Quyun oldidagi girdob kabi haydaladi.
14 Oqshom payti! Qaranglar, kulfat!
Tong otmasdan ular yo‘q bo‘lib ketadi.
Bizni talaydiganlarning qismati shunday bo‘ladi,
Bizdan tortib olganlarga mana shu nasib qiladi.

18–BOB

Xudo Habashistonni jazolaydi

1 Holingga voy! Ey Habashiston* daryolari ortidagi,
Qanotlar guvullashiga to‘lgan yurt!*
2 Nil daryosi orqali xabarchilarini jo‘natadigan,
Dengiz orqali papirus kemalarini yuboradigan yurt!
Sening holingga voy!
Boringlar, ey chaqqon xabarchilar,
Baland bo‘yli, terisi tiniq xalqqa,
Uzoqdan ham, yaqindan ham qo‘rqinchli bo‘lgan elatga,
Kuchli, zabt etuvchi millatga,
Yurtida daryolari bor xalqqa.

3 Ey olam ahli, yurt xalqi!
Tog‘larda bayroq ko‘tarilganda, ko‘rasiz,
Burg‘u chalinganda, eshitasiz.

4 Mana, Egam menga shunday demoqda:
“Qoq tushda kuydiray degan yorqin quyosh nuri kabi,
Hosil mavsumida osmonni bosay degan qora bulut kabi,

Endi jim bo‘lib, O‘z maskanimdan kuzatib turaman.”
5 Hosil yig‘ilmasdan oldin, g‘uncha ochilganda,
Uzum pishib yetilay deganda
Egam novdalarni tok qaychi ila kesadi,
Kurtaklarni esa uzib tashlaydi.
6 Ularning hammasi qolib ketadi
Tog‘lardagi yirtqich qushlarga,
Dashtdagi yovvoyi hayvonlarga.
Ular yem bo‘ladi yozda yirtqich qushlarga,
Qishda yovvoyi hayvonlarga.

7 O‘sha paytda hadyalar keltirar Sarvari Olamga
Baland bo‘yli, terisi tiniq Habash xalqi,
Uzoqdagilar ham, yaqindagilar ham qo‘rqadigan xalq,
Kuchli, zabt etuvchi xalq,
Yurtida daryolari bo‘lgan xalq.
Ha, bu xalq hadyalar keltirar Sion tog‘iga
Sarvari Olamga atalgan joyga.

19–BOB

Xudo Misrni jazolaydi

1 Misr haqida bashorat:

Ana, Egam minib olgan uchqur bulutga,
U keladi Misrga.
Misrning behuda butlari
Uning oldida titrar,
Misrning yuragi esa orqaga tortar.

2 “Misr xalqini bir–biriga sapchitaman.
Aka–ukalaru do‘stlar,
Shaharlaru shohliklar
Bir–biriga qarshi chiqar.
3 Misrliklar tushkunlikka tushadi.
Men ularning rejayu niyatlarini puchga chiqaraman.
Ular qidirib qolar
Behuda butlarniyu sehrgarlarni,
Folbinlaru otalari ruhlarini.
4 Men Misrni berahm xo‘jayinlarga topshiraman,
Ha, kuchli shoh ularni boshqaradi”,
— demoqda Sarvari Olam — Rabbiy.

5 Nil suvi qurib qoladi,
Daryo qurib boraveradi,
U jizg‘anak yer bo‘ladi.

6 Oqar suvlar badbo‘y hid chiqaradi,
Misrdagi Nil pasayib, quriydi.
Poyalaru qamishlar chiriydi.
7 Nil qirg‘og‘idagi, daryo bo‘yidagi qamishlar,
Nil bo‘yiga ekilgan hamma ekinlar
Qurib ketadi, sovuriladi,
Ulardan hech narsa qolmaydi.
8 Baliqchilar aza tutar,
Nilga qarmoq tashlaganlar yig‘lar,
Suvga to‘r yoyganlar umidsiz bo‘lar.
9 Zig‘ir tolasiga ishlov beradiganlar
Sharmanda bo‘ladilar,
Oq mato to‘qiydiganlar*
Uyatga qolib ketadilar.
10 Ularning dastgohlari ishdan chiqadi,
Barcha ishchilari tushkunlikka tushadi.

11 Ey Zo‘van* shahzodalari, g‘irt ahmoqsiz axir,
Ey fir’avn maslahatchilari, sizning donoligingiz ham shunday.
Maslahatlaringiz daf bo‘ladi.
Qanday qilib siz fir’avnga:
“Biz donolarning o‘g‘limiz,
Qadim shohlar naslidanmiz”, deya ayta olasiz?!
12 Ey fir’avn, qani o‘sha dono odamlaringiz?!
Sarvari Olam Misrga nima reja qilganini
Ular sizga bildirsin, aytsin.
13 Mana, Zo‘van shahzodalari ahmoq bo‘ldilar,
Nuf* shahzodalari aldandilar.
Misrni o‘z qabila boshliqlari yo‘ldan urdilar,
14 Ularning aqlini Egam chalkashtirdi,
Qusug‘iga dumalaydigan mast qanday bo‘lsa,
Misrni ular shunday yo‘ldan ozdirar.
15 Misrga hech kim yordam bera olmas,
Na boshi, na quyrug‘i, na xurmosi, na qamishi*.

Misr Egamizga sajda qiladi

16 O‘sha kuni Misr xotin kishiga o‘xshab qoladi. Sarvari Olam unga qarshi qo‘lini ko‘taradi, shunda Misr titrab dahshatga tushadi. 17 Yahudo Misrliklarni dahshatga soladi. Sarvari Olam ularni vahimaga solganini eslagan har bir odam dahshatga tushadi.

18 O‘sha kunga kelib, Misrdagi beshta shahar ibroniy tilida* gapiradigan bo‘ladi. Ular Sarvari Olam oldida ont ichadilar. Bu shaharlardan biri “Quyosh shahri”* deb ataladi.

19 O‘sha kuni Misrning o‘rtasida Egamiz uchun bir qurbongoh quriladi, chegarada Egamizga atalgan bir muqaddas tosh o‘rnatiladi. 20 Bular Sarvari Olam uchun Misrda bir belgi va guvoh bo‘ladi. Xalq zolimlar dastidan yolvorganda, Egamiz ularni qutqaradigan bir himoyachi yuboradi. U xalqni qutqaradi. 21 Egamiz O‘zini Misrliklarga zohir qiladi. Misrliklar ham o‘sha kuni Uni tan oladilar. Egamizga qurbonliklar keltiradilar, nazrlar

atab, sajda qiladilar. Unga va’da berib, va’dalarini ado etadilar. 22 Egamiz Misrliklarni
xastalik keltirish bilan jazolaydi, keyin shifo beradi. Ular Egamizga yolvoradilar, Egamiz
ularga shifo beradi. 23 O‘sha kuni Misr bilan Ossuriya o‘rtasida bir yo‘l bo‘ladi.
Ossuriyalik Misrga, Misrlik Ossuriyaga borib kelaveradi. Ossuriyaliklar bilan Misrliklar
birgalikda sajda qiladilar.
24 O‘sha kuni Misr bilan Ossuriya qatorida Isroil uchinchi xalq bo‘ladi. Uchalovi yer
yuziga baraka bo‘ladi. 25 Ha, Sarvari Olam ularga marhamat qilib, shunday degan: “Ey
xalqim Misr, qo‘llarimning ijodi Ossuriya, O‘zimning mulkim Isroil, baraka topinglar!”

20–BOB

Yalang‘och Ishayo xalq uchun alomatdir

1 Ossuriya shohi Sargon o‘z lashkarboshisini Ashdod shahriga yubordi. Lashkarboshi
kelib, Ashdodni qo‘lga oldi*. 2 O‘sha paytda Omiz o‘g‘li Ishayoga Egamiz shunday dedi:
— Qani, egningdagi qanorni* yech, oyoqlaringdagi choriqlaringni yech.
Ishayo aytilganlarni qildi. U yalang‘och, yalangoyoq yuradigan bo‘ldi. 3 Shunda
Egamiz dedi:
— Qulim Ishayo uch yil yalang‘och, yalangoyoq yurgani Misr va Habashiston*
qismatini bildiruvchi belgi va alomatdir. 4 Ossuriya shohi Misr asirlarini, Habashiston
tutqunlarini, yoshu qarisini yalang‘och, yalangoyoq, uyatli joylari ochiq holda haydab
ketadi. Misr sharmanda bo‘ladi. 5 Habashistonga umid bog‘lagan, Misrdan faxrlangan
xalq isnodga qoladi. 6 O‘sha kuni qirg‘oqdagi yurtning aholisi* shunday deb aytadi: “Biz
ishongan odamlarning ahvolini ko‘rib qo‘ying. Ular bizga yordam berib, Ossuriya
shohining qo‘lidan qutqaradi, deb yurardik. Endi qanday qutular ekanmiz?!”

21–BOB

Bobilning qulashi haqida bashorat

1 Dengiz bo‘yidagi sahro* haqida bashorat:

Nagav uzra ketma–ket esayotgan bo‘ronlar kabi,
Cho‘ldan — qo‘rqinchli yurtdan kelayotir bosqinchi.

2 Men mudhish bir vahiy ko‘rdim:
Xoin xoinlik qilayotir,
Bosqinchi talon–taroj qilayotir.
Egamning so‘zlarini eshitdim:
“Ey Elam xalqi, hujum qil,
Ey Midiya* xalqi, qamal qil!
Jamiki nolalarga barham beraman!”

3 Evoh, ko‘rganlarimdan ichimda og‘riq turdi,
Tug‘ayotgan ayol kabi azoblar meni qamradi.
Ikki bukildim eshitganlarimdan,
Dahshatga tushdim ko‘rganlarimdan.
4 Yuragim uvushib ketdi,

Qo‘rquvdan titrab ketdim.
Oqshomni kutgandim,
Oqshom esa qo‘rquvga to‘la.

5 Bobilliklar gilamlar to‘shab,
Dasturxon hozirlamoqdalar,
Ular yeb–ichmoqdalar.
Birdaniga shunday ovoz eshitilmoqda:
“Qo‘zg‘aling, ey rahnamolar, qalqonlarni yog‘lang!”

6 Rabbiy menga shunday dedi:
“Qani, bir qorovul qo‘y,
Ko‘rganini yetkazsin.
7 Jang aravalarining, otliqlarning,
Eshaklarga, tuyalarga minganlarning
Juft–juft bo‘lib kelganini ko‘radi.
Yaxshilab e’tibor bersin.”
8 Shu lahzada qorovul sherday o‘kirib qoldi*:
“Ey to‘ram, men kunduzi har doim
Qorovul minorasida turaman,
Har tun ham joyimdaman.
9 Ana, jang aravalari, otliqlar
Juft–juft bo‘lib kelayotir!”
Shu on u baqirib xabar berdi:
“Quladi, Bobil quladi!*
Butlari sinib, yer bilan bitta bo‘ldi!”

10 Eh, xalqim!
Xirmonda bug‘doy kabi yanchilgan* xalqim!
Isroil xalqining Xudosi — Sarvari Olamdan
Eshitganlarimni sizga bildirdim.

Edom haqida bashorat

11 Dumax* haqida bashorat:

Seirdan* meni chaqirishar:
“Ey posbon, qachon tong otar?
Qachon tong otar?”
12 Javobim shudir: “Tong otayotir,
Ammo yana kech kiradi.
Ko‘proq bilmoqchi bo‘lsangiz,
Yana qaytib keling.”

Arabiston haqida bashorat

13 Arabiston haqida bashorat:

G‘arb o‘rmonlarida tunaysiz,

Ey Dedon* karvonlari!
14 Ey Temo* aholisi!
Suv keltiring, tashnalarga peshvoz chiqing!
Qutulib omon qolganlarga non bering!
15 Axir, ular qochayotirlar qilichdan,
Dushmanning ko‘tarilgan qilichidan,
Tarang tortilgan yoylardan,
Shafqatsiz urushlardan.

16 Rabbiy menga shunday dedi: “Yana bir yildan keyin, yollangan ishchining muddati kabi, Kedarning* ulug‘vorligi barham topadi. 17 Kedarning jasur kamonkashlaridan ozginasi qoladi.” Ha, Isroil xalqining Xudosi — Egamiz shunday dedi.

22–BOB

Quddus haqida bashorat

1 Vahiy vodiysi* haqida bashorat:

Ey Quddus ahli, nima qilyapsiz?!
Nega tomlarga chiqib*, shod–xurram bo‘lyapsiz?!
2 Nima uchun butun shahar quvonch sadolariga to‘la?!
Orangizda o‘lganlar urushda nobud bo‘lmadi,
Shuni unutdingizmi?!
3 Yo‘lboshchilaringiz jang maydonidan qochdi,
Shuni esdan chiqardingizmi?!
Uzoqqa qochgan bo‘lsa–da,
Ularning hammasi dushman qo‘liga tushdi,
Jangsiz, o‘qsiz dushmanga taslim bo‘ldi.
4 Shunda men dedim:
“Yolg‘iz qoldiring meni,
Achchiq–achchiq yig‘layin.
Tasalli berishga urinmang menga,
Axir, uchradi xalqim qirg‘inga!”

5 Zotan, Sarvari Olam — Rabbiy bir kunni belgiladi,
U kuni Vahiy vodiysida qiy–chuv bo‘ladi,
Zulm va sarosima hukm suradi.
Devorlar qulayotir,
Odamlar tog‘larga qarab faryod qilayotir.
6 Elam* lashkari o‘qdonlarini tayyorladi,
Jang aravalari, otliqlari bilan keldi,
Xir lashkari qalqonlarini qo‘lga oldi.
7 Mana, go‘zal vodiylaringiz jang aravalari bilan to‘ldi,
Otliqlar shahar darvozalari oldiga yig‘ildi.
8 Evoh, Yahudo himoyasiz qoldi!

O‘sha kuni sizlar “Lubnon o‘rmoni” degan uydagi* qurollarga ishondingiz. 9 Dovud
qal’asi devorlarining yoriqlari juda ko‘p. Buni ko‘rib sizlar Quyi hovuzdan suv
to‘pladingiz. 10 Quddusdagi uylarni sanab chiqdingiz. Shahar devorlarini mustahkamlash
uchun uylarni buzdingiz. 11 Eski hovuz suvlarini to‘plash uchun ikki devor o‘rtasida*
sardoba qurdingiz. Ammo buni ilgaridan reja qilgan Xudoni yodga olmadingiz. Amalga
oshiradigan Xudoni xayolingizga ham keltirmadingiz.

12 O‘sha kuni Sarvari Olam — Rabbiy:
“Yig‘lang, aza tuting”, deb aytdi.
“Sochlaringizni qirib, qanorga o‘raning*”, dedi U.
13 Ammo buni qarang!
Shodligu kayfu safo!
“Erta–indin o‘lib ketamiz,
Kelinglar, yeb–ichib qolaylik”, deb
Sizlar buqa, qo‘ylar so‘ydingiz,
Go‘sht yeb, mayxo‘rlik qildingiz.
14 Shunda Sarvari Olamning O‘zi menga shunday dedi:
“Bu gunohlaringiz kechirilmas o‘lguningizgacha.”
Ha, buni Sarvari Olam — Rabbiy aytmoqda.

Shavna ogohlantiriladi

15 Sarvari Olam — Rabbiy shunday demoqda: “Qani, shohning o‘ng qo‘l vaziri, saroy
a’yoni Shavnaning* oldiga borib, shunday deb ayt: 16 «Bu yerda nima ishing bor?! Bu
yerda sening kiming borki, o‘zingga qabr qazibsan?! Yuksakda o‘zingga qabr qazibsan,
qoyada o‘zingga maskan qilibsan?! 17 Mana, Men, Egang, seni uloqtiraman. Ey kuchli
inson! Men seni chirpirak qilib shiddat bilan uloqtiraman. 18 Men seni aylantirib–
aylantirib, to‘p kabi, keng bir yurtga uchirib yuboraman. Sen o‘sha yurtda o‘lib ketasan.
Ulug‘vor jang aravalaring o‘sha yerda qolib ketadi. Xo‘jayining xonadoniga sen
sharmandalik keltirasan! 19 Men seni o‘z joyingdan qo‘zg‘ataman. Sen o‘z lavozimingdan
olinasan.
20 O‘sha kuni Xilqiyoning o‘g‘li qulim Eliyaqimni* chaqiraman. 21 Sening liboslaringni
unga kiydiraman. Kamaringni unga bog‘lab, sening butun hukmronligingni unga
beraman. U Quddus aholisiga, Yahudo xalqiga ota bo‘ladi. 22 Dovud xonadonining
kalitini* unga beraman. U ochganda, hech kim berkitolmaydi. U berkitganda, hech kim
ocholmaydi. 23 Men uni devorga mustahkam qoqilgan qoziqday qilaman, u o‘z urug‘iga
shuhratu sharaf keltiradi. 24 Hamma urug‘–aymoqlarini qo‘llab–quvvatlaydi, ularning
og‘irini yengil qiladi. Ular qoziqqa osilgan idishlar kabi Eliyaqimga osilib oladi. 25 Ammo
bir kun kelib, mustahkam qoqilgan bu qoziq joyidan chiqib, yerga tushadi, — demoqda
Sarvari Olam. — Unga osilgan yuk chilparchin bo‘ladi.»” Egamiz shunday deb aytdi.

23–BOB

Tir shahrini Xudo jazolaydi

1 Tir* haqida bashorat:

Ey Tarshish* kemalari, faryod qiling!

Siz Kipr* sohilida eshitgan xabarlar to‘g‘ri,
Boshpanangiz bo‘lgan Tir vayron bo‘ldi.

2 Sukut saqlang, ey orol xalqi!
Ey Sidon* savdogarlari!
Bir paytlar kemalarga to‘la edingiz.
3 Shixor* doni, Nilning hosili
Tirning daromadi bo‘lgan edi,
U elatlardan foyda qilardi.
4 Uyat senga, ey Sidon!
Axir, Tir, dengiz bo‘yidagi qal’a shunday demoqda:
“Na to‘lg‘oq azobin chekdim, na tug‘dim,
Na o‘g‘illar, na qizlar ulg‘aytirdim.”
5 Tir to‘g‘risida eshitganda,
Misrning yuragi qinidan chiqay deydi.

6 Tarshishga jo‘nang, ey qirg‘oq aholisi,
Faryod qiling!
7 Qadimda barpo bo‘lgan,
Takabbur shahringizning holi ne bo‘ldi?
Endi darbadar bo‘lasiz,
Uzoq, begona yurtni vatan qilasiz.
8 Tirga qarshi kim bunday qaror chiqardi?
Bu shahar shohlarga toj kiydirgandi,
Savdogarlari hukmdor edi,
Butun dunyo ularni izzat qilardi.
9 Sarvari Olam qabul qildi bu qarorni:
“Takabburligi, ulug‘vorligi yo‘q bo‘lsin,
Butun olam izzat qilganlar yerga urilsin.”

10 Ey Tarshish ahli!
Nil bo‘yidagi dehqonlar kabi,
Yerlaringga ishlov ber*.
Axir, bandargohing yo‘q endi*.
11 “Kan’on qal’alari vayron bo‘lsin”, deb
Egamiz amr berdi.
Ha, U dengizga qarshi qo‘l ko‘tardi,
Shohliklarni titratdi.
12 Egamiz shunday dedi:
“Zulm chekkan, ey Sidon ahli,
Endi xursandchilik bilmay o‘tasan.
Qani, Kiprga jo‘na,
U yerda rohat nimaligin bilmay o‘tasan.”

13 Ana Bobil* yurtiga boq, endi uning xalqi yo‘q. Ossuriyaliklar qurshov minoralari qurdilar, Bobilliklarning saroylarini yakson qildilar. Yurtni vayronaga aylantirdilar,

yovvoyi hayvonlarga berdilar.

14 Faryod qiling, ey Tarshish kemalari,
Endi yo‘q boshpanangiz!*

15 Shundan keyin Tir shahri bir shohning umricha — yetmish yilga unutiladi.
Yetmish yil o‘tgandan keyin, Tir ham quyidagi qo‘shiqda aytilgan fohishaday bo‘ladi.

16 Arfangni ol, shahar bo‘ylab kez,
Ey hamma unutgan fohisha!
Qani, go‘zal qilib chal–chi!
Qo‘shiq ketidan qo‘shiq kuyla–chi!
Balki seni eslab qolarlar.

17 Yetmish yil o‘tgach, Egamiz Tir bilan yana aloqada bo‘ladi. Ammo Tir pul uchun
yana fohishalik qila boshlaydi. Dunyoning hamma shohliklariga fohisha bo‘ladi.
18 Shahar tijoratdan va fahshdan olgan daromadlarini Egamizga ataydi. Daromadlar
yig‘ilmaydi ham, saqlanmaydi ham. Tijoratdan olganlarini to‘yguncha yesinlar, chiroyli
kiyinsinlar deb, daromad Egamizning huzurida yashayotganlarga beriladi.

24–BOB

Egamiz yer yuzini jazolaydi

1 Ana, Egamiz xarob etadi yer yuzini,
Vayronaga aylantiradi uni,
Ostin–ustin qiladi yer yuzini,
Tarqatib yuboradi zamin ahlini.
2 Bir taqdir kutmoqda
Xalq va ruhoniyni,
Qul va uning egasini,
Cho‘riyu uning bekasini,
Xaridoru sotuvchini,
Qarzdoru qarz beruvchini,
Sudxo‘ru qarz olganni.
3 Dunyo tamom vayron bo‘ladi,
Yer yuzi o‘ljaga aylanadi.
Ha, Egamizning kalomi shudir.

4 Dunyo qurib, vayron bo‘ladi,
Yer yuzi qayg‘urib, tamom bo‘ladi,
Dunyoning mag‘rur xalqi kuchdan qoladi.
5 Zamin bulg‘andi,
Axir, uning ahli qonunlarni buzdi,
Xudoning ko‘rsatmalarini oyoq osti qildi.
Ha, abadiy ahd buzildi.
6 Shu bois la’nat olamni yeb bitiradi,

Olam ahli gunohining jazosini tortadi,
Shu sababdan ular yo‘qolib bormoqda,
Juda oz odamlar qutulib qoldi.
7 Yangi sharobing tugadi, toklaring quridi,
Ilgari shod bo‘lganlar og‘ir nafas olmoqda.
8 Doiraning jo‘shqin sadosi kesildi,
Shodon ovozlar endi eshitilmaydi,
Arfaning sho‘x sadosi sukutga toldi.
9 Endi sharob ichib, qo‘shiq aytmaslar,
Ichganga sharobning ta’mi achchiq tuyular.
10 Vayrona shahar tashlandiq bo‘ldi,
Hamma uy berkilgan, kirib bo‘lmaydi.
11 Sharob yo‘qligidan ko‘chalarda shovqin–suron.
Evoh, shodlikdan asar ham qolmadi,
Dunyoni sevinch tark etdi.
12 Shahar xarobazor,
Darvozalari esa parcha–parcha.
13 Ha, hosil mavsumidan keyin,
Zaytun daraxti yoki uzumzor qanday bo‘lsa,
Dunyodagi xalqlar ham shunday yalang‘och bo‘lib qoladi.

14 Mana, g‘arbdagilar
Egamizning buyukligini ovoza qiladilar.
Ular ovozlarini yuksaltirib,
Sevinchdan hayqiradilar.
15 Shu bois, ey sharq ahli, Egamizga hamdu sano ayting,
Ey dengiz orollarida yashovchilar,
Isroil xalqining Xudosi — Egamizni ulug‘lang.
16 Dunyoning eng chetidan qo‘shiqlar eshitarmiz:
“Odil Xudoga sharaflar bo‘lsin!”

Ammo men: “Tamom bo‘ldim! Tamom bo‘ldim!
Endi holimga voy! — dedim. —
Xoinlar sotmoqdalar,
Ha, ular xoinlik qilmoqdalar!”
17 Ey olam ahli, sizni vahima,
Tuzoq va choh kutmoqda.
18 Vahimali ovozni eshitib qochgan chuqurga tushar,
Chuqurdan chiqqan esa tuzoqqa ilinar,
Osmonning qopqasi ochiladi,
Yerning poydevori titrab ketadi.

19 Yer parcha–parcha bo‘lib,
Maydalanib ketadi.
Yer qattiq tebranadi.

20 Zamin mast odamday gandiraklaydi,
Daladagi chayladay tebranadi.
Gunohlarning og‘irligidan bukchayib qoladi,
Yiqiladi–yu, qaytib tura olmaydi.

21 O‘sha kuni Egamiz yuqoridagi samoviy kuchlarga,
Pastdagi zamin shohlariga jazo beradi.
22 Ular chohdagi asirlar kabi,
Bir joyga yig‘ib olinadi,
Zindonga qamab qo‘yiladi,
Keyinroq ular jazolanadi.

23 Oy xijolat bo‘lar, quyosh sharmanda bo‘lar,
Sarvari Olam Quddusdagi Sion tog‘ida hukmron bo‘lar.
Xalq oqsoqollariga U O‘z ulug‘vorligini namoyon qilar.

25–BOB

Shukrona qo‘shig‘i

1 Ey Egam, Sen mening Xudoyimsan.
Men Seni ulug‘layman,
Senga hamdu sanolar aytaman.
Sen ajoyib ishlar qilgansan,
Qadimdan tuzgan rejalaringni,
Sadoqat bilan amalga oshirgansan.
2 Yakson qilding dushmanlarimiz qal’alarini,
Vayronaga aylantirding mustahkam shaharlarini,
Yo‘q qilding uzoq yurtdagi ajoyib saroylarini,
Ular hech qachon qayta tiklanmas.
3 Endi kuchli xalqlar Seni izzat qiladi,
Shafqatsiz xalqlar Senga sajda qiladi.
4 Kambag‘al, bechoralar kulfatda qolganda,
Sen ularga boshpana bo‘lding.
Peshindagi jaziramadan soya,
Jaladan panoh bo‘lding.
Vahshiy g‘animlarning hujumi bo‘ronday bo‘ldi.
Sen esa bizning panohimiz bo‘lding.
5 Dushman shovqin–suroni
Sahro issig‘i kabi bo‘lganda,
Jazirama issiqni Sen
Bulutlar soyasi ila bosding.
Dushmanning sevinch qo‘shig‘i
Sadolarini o‘chirding.

Xudo ziyofat tayyorlaydi

6 Bu tog‘da* Sarvari Olam

Jamiki xalqlar uchun
Ajoyib ziyofat tayyorlar.
Boy dasturxon, sara sharoblar,
Yog‘li go‘shtlar, tiniq sharob tortiladi.
7 O‘sha kuni Egam jamiki xalqlar ustidan
Kafanlarini yechib tashlaydi.
Mana shu tog‘da Egam
Xalqlarni o‘ragan, elatlar ustidagi
Yopinchiqni olib tashlaydi.
8 Ha, U o‘limni butunlay yutib yuboradi.
Egam Xudo hammaning ko‘z yoshlarini artib qo‘yadi,
Butun yer yuzida O‘z xalqining uyatini olib tashlaydi.
Ha, Egam shunday deb aytgan!

9 O‘sha kuni ular shunday deydilar:
“Mana, bizning Xudoyimiz,
Qutqarsin deb, Uni kutgandik,
U bizga najot berdi.
Kelinglar, quvonaylik, sevinaylik!
Umid qilib kutgandik,
Mana, bizning Egamiz.”

Xudo Mo‘abni jazolaydi

10 Egamning O‘zi bu tog‘ni himoya qilar.
Mo‘ab* xalqi yanchilgan somonday ezilar,
Chiritish uchun go‘ng chuqurga uloqtirilar.
11 Ha, ular bor kuchi bilan
Suzuvchiga o‘xshab chuqurdan chiqishga intilar.
Ammo Xudo ularning g‘ururini yakson qilar,
Qo‘llarining mohirligi foyda bermas.
12 Mo‘abning qal’a devorlari buzib tashlanar,
Vayronaga aylanar, yer bilan yakson bo‘lar.

26–BOB

Xudo O‘z xalqiga g‘alaba ato qiladi

1 O‘sha kuni Yahudo yurtida ushbu qo‘shiq kuylanar:

“Mana, shahrimiz qudratlidir!
Egamiz bizning qal’amizdir,
Uning O‘zi bizga najot beradi.
2 Oching shahar darvozalarini!
Sadoqatli solih xalq ichkari kirsin!
3 Ey Egamiz, Senga ishonib,
Fikri–zikri Sendan uzilmaydiganga
O‘zing komil tinchlik ato qilasan.

4 Egamizga to abad ishon,
Uning O‘zi* abadiy Qoyamizdir.
5 Yuksalganlarni U yiqitdi,
Takabbur shaharni vayron qilib,
Yer bilan bitta qildi.
6 O‘sha shaharni mazlumlar oyoq osti qildi,
U bechoralarning qadamlari ostida ezildi.”

7 Solihning yo‘li tekisdir,
To‘g‘ri yo‘lni Sen unga tayyorlaysan.
8 Ey Egamiz, yo‘l–yo‘riqlaring ila
Senga umid qilamiz.
Sening nomingni sharaflash
Ko‘nglimiz istagidir.
9 Tun bo‘yi yuragim Seni qo‘msaydi,
Ha, men Senga intilaman.
Yer yuzida Sening hukming bo‘lganda,
Olam ahli adolatni biladi.
10 Fosiqlar marhamat ko‘rganda
Ular aslo solihlikni o‘rganmas.
Haqqoniylik o‘rniga ular egrilik qilaveradi,
Sening ulug‘vorligingni ular ko‘rmaydi.
11 Ey Egamiz, qo‘ling ko‘tarilgan,
Jazolashga tayyor,
Ammo ular buni ko‘rmaydi.
Xalqingni deb jon kuydirganingni ko‘rib,
Ular sharmanda bo‘lsin.
G‘animlaringga atalgan olov ularni yutsin.

12 Ey Egamiz, bizga Sen tinchlik ato etasan,
Qilgan ishlarimizning barchasiga
Yetishganmiz Sening qudrating ila.
13 Ey Egamiz Xudo, Sendan boshqalar
Ustimizdan hukmronlik qildilar,
Ammo biz yolg‘iz Sening nomingni tilga olamiz.
14 O‘liklar yashamas,
Ular aslo qaytib kelmas.
Ularni Sen jazolab, qirib tashlading,
Ularni tamomila xotiradan o‘chirding.
15 Ey Egamiz, xalqimizni Sen ko‘paytirding,
Xalqni ko‘paytirib, O‘zing yuksalding,
Yurtning barcha chegaralarini kengaytirding.

16 Ey Egamiz, kulfatda qolganlarida
Ular Senga yuz burdilar,

Sening tanqidlaring ostida egildilar.
17 To‘lg‘oq tutayotgan ayol og‘riqdan qichqirganday,
To‘lg‘onib, dod–faryod qilganday,
Biz ham Sening oldingda shunday bo‘ldik, ey Egamiz!
18 Homilador bo‘lib, dard chekdik,
Ammo shamoldan boshqa hech narsa ko‘rmadik.
Na yer yuzida biz g‘olib bo‘ldik,
Na avlodlar dunyoga keltirdik.

19 Ammo Sening o‘lik xalqing tiriladi,
Tanalari o‘rnidan turadi.
Ey tuproq ostida yotganlar, qo‘zg‘aling,
Shodlikdan hayqiring!
Ey Egamiz, shabnaming tonggi shabnamga o‘xshaydi,
Zamin murdalariga hayot bag‘ishlaydi.

Hukm va qayta tiklanish

20 Keling, ey xalqim, bir oz yashirinib turing!
Egamizning g‘azabi bosilguncha,
Kiring ichkariga,
Ortingizdan eshiklarni yopib qo‘ying!
21 Ana, Egamiz kelayotir maskanidan
Zamin ahlini gunohlari uchun jazolagani.
Yer to‘kilgan qonlarni fosh etadi,
Qotillikning qurbonlarini endi yashirmaydi.

27–BOB

1 O‘sha kuni Egamiz qilichi bilan Levitanni* jazolar.
Ha, shafqatsiz, bahaybat, qudratli qilichi bilan jazolar
O‘sha qochayotgan, g‘imirlayotgan ilon — Levitanni.
O‘ldirar dengizdagi o‘sha ajdarhoni.

2 Egam aytar: “O‘sha kuni ajoyib uzumzor* to‘g‘risida kuylang!
3 Men, Egangiz, uzumzor qo‘riqchisiman,
Doimo uni sug‘oraman.
Kechayu kunduz uzumzorni qo‘riqlayman,
Hech kim unga zarar keltirolmaydi.
4 Men g‘azabda emasman!
Lekin tikanlaru butalar Menga qarshi chiqsa,
Ular bilan jang qilaman.
Ularni yondirib tashlayman.
5 Ular Mendan panoh izlab kelsin!
Ha, Men bilan tinchlik o‘rnatsin,
Ular Men bilan tinchlik o‘rnatsin.”

6 Vaqti kelib, Yoqub nasli ildiz otadi,

Isroil kurtak otib, gullaydi,
Yer yuzini mevalari bilan to‘ldiradi.

7 Isroilning dushmanlarini Egamiz qattiq jazolaydi!
Isroilning ko‘p g‘animlarini Egamiz o‘ldiradi,
Isroilni esa u qadar jazolamaydi,
8 Egamiz O‘z xalqini jazolaganda
Ularni yurtidan haydab, surgun qiladi.
Sharqdan esgan bo‘ron kabi,
Ularni uzoqqa olib ketadi.
9 Shunday qilib, Egamiz Yoqub naslini gunohdan poklaydi.
U butlarga atalgan qurbongohlarni parchalab tashlaydi.
Asheraga* atalgan ustunu tutatqi qurbongohlardan asar ham qolmaydi.
10 Mana, Isroilning mustahkam shaharlari tashlandiq bo‘ladi,
Tark etilgan sahroday, huvullagan yurt bo‘ladi.
Vayronalar orasida chorva o‘tlab yuradi,
Daraxtlarning bargini yeb, ship–shiydam qiladi.
11 Shoxlari qurib, sinib yotadi,
Ayollar kelib, ularni yoqadi.
Bu xalq aql–hushidan ayrilgan,
Yaratuvchi ham ularga achinmaydi,
Xudo ularga marhamat ko‘rsatmaydi.

12 O‘sha kuni, ey Isroil xalqi, Egamiz sizlarni Furot daryosidan Misr chegarasidagi irmoqqacha* bo‘lgan yerda yanchadi*. Hammangizni bitta–bitta yig‘ib keladi. 13 O‘sha kuni katta karnay chalinadi. Ossuriya yurtida yo‘qolganlar, Misr yurtiga quvilganlar kelib, Quddusdagi muqaddas tog‘da* Egamizga sajda qiladi.

28–BOB

Xudo Samariyani jazolaydi

1 Ey ulug‘vorlik toji bo‘lgan shahar! Holingga voy!
Sen Efrayimdagi* mast–alastlarning ulug‘vorligi eding!
Eh, ajoyib, go‘zal shahar eding! Shuhrating gulday so‘lmoqda!
Serhosil vodiydagi unumdor shahar eding.
Tubanlashding sharobdan!
2 Mana, Rabbiyning kuchli bir bahodiri bor*.
U selga, vayron keltiradigan quyunga o‘xshaydi.
Yuvib ketadigan, toshqin jalalarga o‘xshaydi.
O‘z qo‘llari bilan u Efrayimni yakson qiladi.
3 Eh, Efrayimdagi mast–alastlarning ulug‘vorlik toji!
Ana endi oyoq ostida toptaladi!
4 Serhosil vodiydagi unumdor shahar edi!
Endi ularning shuhrati gullar kabi so‘nadi.
Ular ilk pishgan anjirlarga o‘xshaydi,

Pishgan zahoti yulinib, yutib yuboriladi.

5 O‘sha kuni Sarvari Olam
O‘zining xalqidan qolganlari uchun
Shuhrat tojiyu ajoyib gulchambar bo‘ladi.
6 Hukm kursisida o‘tirganlarga
U adolat ruhini beradi.
Darvozadan dushmanga zarba beradiganga
U jasorat manbai bo‘ladi.

Xudo buzuq yo‘lboshchilarni jazolaydi

7 Ruhoniy, payg‘ambarlar sharob tufayli,
O‘tkir ichimliklardan gandiraklab yuradi.
Ha, sharob, bo‘zalardan ularning boshi aylanadi,
May dastidan ular yo‘llaridan adashadi,
O‘tkir ichimlikdan gandiraklab yuradi.
Ular vahiy ko‘rganlarida xato qiladi,
Qiladigan hukmlarida adashadi.
8 Ularning dasturxoni qusuqqa to‘la,
Birorta ham toza joy yo‘q.

9 Ular menga ta’na qilib aytadi:
“Sen kimga ta’lim berayotganingni bilasanmi o‘zi?!
Bizni endi ko‘krakdan ajratilgan go‘dak deb o‘ylayapsanmi?!
10 Qachon qarama, bidir–bidir qilasan,
Go‘dakday guvranasan*.”
11 Shunday ekan, Xudo ularga,
O‘zga tilda, tushunarsiz shevada* gapiradi.
12 Xudo ularga qayerda orom topishlarini aytgan,
Tinchlikka qanday erishish kerakligini o‘rgatgan,
Ammo ular quloq solishni istamadilar.
13 Shu sababdan Egamizning so‘zi
Ular uchun mazmunsiz so‘zlarday bo‘ladi.
Go‘dakning guvranishiday* eshitiladi.
Ular yurmoqchi bo‘lganlarida
Orqaga yiqilib, yaralanadilar,
Tuzoqqa tushib, olib ketiladilar.

Quddus hukmdorlariga murojaat

14 Shu bois Egamdan kelgan bu xabarni eshiting,
Ey Quddusdagi masxaraboz hukmdorlar!
15 Sizlar shunday dedingiz: “Biz
O‘lim bilan ahd qilganmiz,
O‘liklar diyori* ila bitim tuzganmiz.
Dahshatli ofat kelib boshimizga tushmaydi.
Axir, yolg‘onni panoh qilib olganmiz,

Soxtalikni chodir qilib olganmiz.”
16 Shu bois Egamiz Rabbiy aytmoqda:
“Mana, Men joylashtiryapman Quddusda*
Sinalgan bir toshni, poydevor toshini.
Bu qadrli tamal toshi* ishonchli poydevordir.
Ha, unga tayangan hech bir inson umidsiz bo‘lmaydi.
17 Men adolat bilan hukm qilaman,
To‘g‘rilik o‘lchovim bo‘ladi.
Soxta panohingizni do‘l yuvib ketadi,
Chodiringizni sellar yuvib ketadi.
18 O‘lim bilan tuzgan ahdingiz bekor bo‘ladi,
O‘liklar diyori ila qilgan bitimingiz barbod bo‘ladi.
Dahshatli ofat yurtdan o‘tayotganda,
Sizlar yer bilan yakson bo‘lasiz.
19 Ha, har tongda, tunu kun
O‘sha to‘fon sizni yuvib ketadi.”

Eshitganingizni anglab yetganingizda,
Bu xabar g‘oyat katta xavfdan darak beradi:
20 Yotgani to‘shagingiz kaltalik qiladi,
Yopingani ko‘rpangiz ensizlik qiladi*.
21 Perazim tog‘idagiday*
O‘z ishimni qilay, deb Egam qo‘zg‘aladi.
Givon vodiysidagiday* U g‘azabga minadi.
Ha, U O‘zining ajoyib ishini qiladi.
Uning ishlari hayratda qoldiradi.
22 Masxaralashni bas qiling endi,
Bo‘lmasa zanjirlaringiz yana og‘irlashadi.
Sarvari Olam — Rabbiy menga:
“Butun yurtni vayron qilaman”, deb aytdi.

Barcha donolik Egamizdandir

23 Tinglang, ovozimga quloq soling,
Diqqat qiling, gaplarimni eshiting!
24 Dehqonlar ekish uchun yerga ishlov beraveradimi?!
Tuproq kovlayveradi–yu, hech qachon ekmaydimi?!
25 Yo‘q, ular yerni tekislaydi,
Keyin ukrop, zira urug‘ini sepadi.
Belgilangan joylariga
Har turli bug‘doy, arpa urug‘ini ekadi.
26 Ha, dehqonlar nima qilishni biladi,
Xudo ularga aql–idrok bergan!

27 Axir, ukropni bolg‘a bilan yanchmaydi,
Zirani arava g‘ildiragi bilan ezmaydi.
Mana, ukropni kaltak bilan yanchib oladi,

Zirani tayoq bilan ezib oladi.
28 Bug‘doydan un qilinadi,
Ammo u to abad yanchilmaydi*.
Arava g‘ildiragi bug‘doy ustidan
Chang bo‘lguncha yurgizilmaydi.
29 Bu donolik kelar Sarvari Olamdan,
Uning maslahatlari ajoyib, donoligi buyukdir.

29–BOB

Quddus qamal qilinadi

1 Egam aytar:
“Holingga voy, ey Dovud yashagan shahar!
Ey Oriyol*, Oriyol!
Yillar ortidan yillar o‘taveradi,
Bayramlar nishonlanadi.
2 Ammo Men boshingga kulfat keltiraman,
Faryod qilib, nola chekasan,
Seni qurbongoh* qilaman.
3 Atrofingda senga qarshi lashkar to‘playman,
Qamal inshootlarini* o‘rnataman.
Minoralar qurib, seni o‘rab olaman.
4 Yerning ostidan sen gapirasan,
Tuproq ostidan so‘zlaring keladi,
Ovozing sharpa ovoziday yer ostidan chiqadi,
Gaplaring tuproq ostidan shivirlab keladi.

5 Ammo shunda shafqatsiz dushmanlaring
Birdaniga chang kabi uchib ketadi,
To‘satdan bo‘rondagi xas–cho‘pday
Ular to‘zib ketadi.
6 Kelaman Men, Sarvari Olam, gumbur–gumbur,
Zilzila, shovqin–suron, dovul,
Bo‘ronu yutib yuboruvchi alanga bilan.
7 Ey Quddus*, sizga qarshi chiqqan xalqlar yo‘q bo‘lib ketadi.
Sizning qal’angizga hujum qilgan vahshiy elatlar
Tundagi tush kabi o‘tib ketadi.
8 Ha, och odam tushida ovqat yesa ham,
Uyg‘onganda, ochligicha qolaveradi.
Chanqagan odam tushida suv ichadi–yu,
Chanqog‘i qonmasdan uyg‘onadi.
Ey Sion tog‘i, sizga qarshi chiqqan
Jamiki elatlar ham shu ahvolga tushadi.”

9 Qulog‘ingizni kar qiling, dong qotib qoling,

Koʻzingizni koʻr qiling, koʻrmas boʻling,
Mast boʻling, ammo sharobdan emas,
Gandiraklab yuring, ammo boʻzadan emas.
10 Egam sizni qattiq uxlatib qoʻydi,
Ey paygʻambarlar, Egam koʻzlaringizni uyquga bostirdi.
Ey valiylar, Egam boshu koʻzlaringizni oʻrab qoʻydi.

11 Mana, bu vahiyning hammasi sizlar uchun muhrlangan oʻrama qogʻozday* boʻlib qoldi. Bu oʻrama qogʻoz oʻqiy oladiganlarga berilib: “Buni oʻqing!” deb buyurilsa, ular: “Yoʻq, muhrlangan ekan”, deydilar. 12 U oʻqiy olmaydiganlarga berilib: “Buni oʻqing”, deb aytilgan boʻlsa, ular: “Biz oʻqishni bilmaymiz”, deb javob beradilar.

13 Ha, Rabbiy aytdi:
“Bu xalq faqat soʻzdagina Menga yaqinlashadi,
Tilidagina Meni izzat qiladi,
Yuraklari esa Mendan uzoqdir.
Ular inson yaratgan qoidalari orqali
Menga sajda qilishadi.
14 Mana, Men shunday bir ish qilamanki,
Bu xalq hayratda qoladi,
Lol boʻlib, dong qotadi.
Donolari donoligidan mahrum boʻladi,
Idroklilari idrokidan ayriladi.”

15 Holingizga voy!
Egamizdan rejalaringizni yashiryapsiz,
Ishlaringizni qorongʻilikda qilyapsiz.
“Kim bizni koʻrardi, kim bizni bilardi?” deysiz.
16 Hammasini agʻdar–toʻntar qilyapsiz,
Axir, kulolni loyga tenglashtirib boʻladimi?!
Nahotki buyum oʻzini yaratganga:
“Meni yaratganing yoʻq”, deb aytsa?!
Nahotki idish kulolga:
“Sen tushunmaysan”, deb aytsa?!

Kelajakka umid

17 Mana, qisqa vaqt ichida
Lubnon oʻrmoni* dalaga aylanadi.
Dala esa qalin oʻrmon boʻladi.
18 Oʻsha kuni kitobdagi soʻzlarni karlar eshitar,
Koʻrlarning koʻzlari zulmatda nur koʻrar.
19 Bechoralarga Egam yangi quvonch ato etadi,
Isroil xalqining Muqaddas Xudosi tufayli
Muhtojlar shod boʻladi.
20 Zolimlar to abad yoʻq boʻladi,
Mazaxchilar halok boʻladi,

Yomonlik istovchilar qirib tashlanadi.
21 Ular odamlarga tuhmat yog‘dirar,
Hakamlarga tuzoq qo‘yar,
Solihlarni adolatdan mahrum qilar.

22 Shu bois Ibrohimni qutqargan Egam
Yoqub xonadoni to‘g‘risida shunday deb aytmoqda:
“Yoqub nasli endi hech qachon sharmanda bo‘lmaydi,
Qo‘rquvdan uning rangi oqarmaydi.
23 Isroil xalqi Men bunyod etgan farzandlarini ko‘rganda
Ular Mening nomimni muqaddas deb biladi,
Meni — Yoqub naslining Xudosini muqaddas deb tan oladi.
Ha, Men, Isroil Xudosining huzurida hayratda turadi.
24 Yo‘lidan adashganlar o‘shanda tushunib yetadi,
Noliganlar yo‘l–yo‘riqlarimni o‘rganadi.”

30–BOB

Misrdan yordam kutish befoyda

1 Egam aytar: “Eh, itoatsiz xalqim!
Ularning holiga voy!
Mensiz maslahatlar qilishadi.
Sulhlar tuzadi, lekin Mening Ruhim yo‘q–ku ularda!
Ha, xalqim gunoh ustiga gunoh orttiraveradi.
2 Axir, Mendan so‘ramasdan Misrga boryaptilar,
Fir’avndan panoh so‘rayaptilar,
Misrdan boshpana istayaptilar.
3 Ammo fir’avnning himoyasi ularga sharmandalik bo‘ladi,
Misrning boshpanasi ularni uyatga qoldiradi.
4 Mana, xalqimning a’yonlari Zo‘vanga yetib keldilar,
Elchilar Xanesga* kirib keldilar.
5 Lekin ularning hammasi sharmanda bo‘ladi,
Axir, Misr ularning xalqiga yordam bermaydi.
Hech qanday madad, foyda yo‘q,
Ular sharmanda bo‘lib, ta’na tagida qoladi.”

6 Nagav cho‘lidagi hayvonlar haqida bashorat:

Elchilari eshagu tuyalarga xazinalarini ortib,
Misrga olib ketmoqda.
Vahimali sahro bo‘ylab sekin
Misr tomon bormoqda.
Ular bormoqda sherlaru zaharli ilonlar
Yashaydigan sahro bo‘ylab.
Ammo Misr ularga yordam bermaydi.
7 Misr bergan madad bekor, foydasiz,

Shu bois Men Misrni
“Jim o‘tirgan Rahob*” deb atayman.

Isroil itoat etishdan bosh tortadi

8 Egamiz aytar: “Endi bor, so‘zlarimni bir lavhaga yozib,
Bu xalq uchun kitob qilib ber.
Bu kelgusi vaqtlar uchun bo‘lsin,
Yozilganlar to abad bo‘lsin.”
9 Ular isyonkor xalq, yolg‘onchi bolalar!
Egasining yo‘l–yo‘riqlariga
Quloq solishni rad etgan bolalar ular.
10 Ular valiylarga aytar:
“Endi vahiy ko‘rmanglar.”
Ular payg‘ambarlarga aytar:
“Bizlarga haqiqiy bashoratlarni aytmanglar.
Bizga shirin so‘zlaru soxta vahiylar ayting.
11 Bu yo‘ldan yurmang endi! Qayting bu yo‘ldan.
Isroil xalqining Muqaddas Xudosi haqida endi
Eshitmaylik hech bir narsa!”

12 Shu bois Isroil xalqining Muqaddas Xudosi aytar:
“Sizlar Mening so‘zlarimni rad qildingiz,
Zulmga, yolg‘onga umid bog‘ladingiz,
Ularga ishondingiz.
13 Shu bois sizlar uchun bu gunohingiz
Yorilgan, shishib ketgan devor kabi bo‘ladi.
Birdan, bir lahzada qulab tushadi.
14 Sopol idish kabi, u parcha–parcha bo‘lib ketadi.
Shunchalik ezilib ketadiki,
O‘choqdan cho‘g‘ yoki hovuzdan suv olgani
Biron parchasini ham topib bo‘lmaydi.”

15 Egamiz Rabbiy, Isroil xalqining Muqaddas Xudosi shunday demoqda:
“Menga qaytsangiz najot topasiz,
Halovatli bo‘lsangiz qutqarilasiz.
Sokinligu ishonchingiz sizning kuchingiz bo‘ladi.
Ammo sizlar buni xohlamadingiz.
16 Aytdingizki: «Yo‘q, otlarga minib uchib ketamiz»,
Mana endi otlarga minib uchib ketasiz!
Aytdingizki: «Uchqur otlarga minib ketamiz»,
Endi esa sizni ta’qib qiladiganlar uchqur bo‘ladi!
17 Qaranglar, xalqingizdan besh–oltitasi qolmaguncha
Bir kishining tahdidi mingtangizni qochiradi.
Besh kishining tahdidi hammangizni qochiradi.
Ammo qolganlar tepalikdagi bayroq dastasiday bo‘ladi.
Ular tog‘ cho‘qqisidagi bayroq kabi ishora bo‘ladi.”

18 Shuning uchun Egam kutmoqda,
Sizlarga shafqat koʻrsatay deb.
Mana U qoʻzgʻalmoqda,
Oʻz mehrini koʻrsatay deb.
Axir, Egam adolatli Xudodir.
Unga umid bogʻlaganlar baxtiyordir.

19 Ey Quddusda makon qilgan Sion xalqi! Sizlar endi yigʻlamaysizlar. Faryodingizni eshitib, Egam albatta marhamat koʻrsatadi. Ovozingizni eshitib, javob beradi. 20 Rabbiy sizlarga kulfatni non qilib, qaygʻuni suv qilib bersa ham, endi Oʻsha Ustozingiz Oʻzini yashirmaydi. Sizlar oʻz koʻzlaringiz bilan Uni koʻrasizlar. 21 Sizlar oʻngga yoki chapga burilganingizda, shunday ovozni eshitasizlar: “Mana yoʻl, shu yoʻldan yuringlar.” 22 Keyin hamma kumush butlar, oltin tasvirlaringizni yoʻq qilib tashlaysiz. Siz oʻsha narsalarni iflos latta–puttaday uloqtirib tashlaysiz. “Ey daf boʻl koʻzimdan!” deysiz oʻsha narsalarga.
23 Egam yerga ekkan urugʻingizga yomgʻir beradi. Yerdan keladigan oziq–ovqat moʻl, barakali boʻladi. Oʻsha kuni chorvangiz keng yaylovlarda oʻtlaydi. 24 Tuproqqa ishlov bergan hoʻkiz, eshaklar eng yaxshi yemni yeydilar. 25 Oʻsha kuni, dushmanlaringiz oʻldirilgan, minoralar qulagan kuni har bir togʻdan, har bir tepalikdan irmoq oqib tushadi. 26 Oy quyoshga oʻxshab nur sochadi. Quyosh esa yetti barobar koʻproq nur beradi, yetti kunlik yorugʻligini sochadi. Egam Oʻz xalqining yaralarini bogʻlab, Oʻzi keltirgan jarohatlarga shifo bergan kun shunday boʻladi.

Egamiz Ossuriyani jazolaydi

27 Ana, Egamizning Oʻzi uzoqdan kelmoqda,
Qalin bulut ichida*, gʻazabga minib kelmoqda.
Lablari gʻazabga toʻla,
Tili — yamlamay yutadigan olovday.
28 Uning nafasi boʻyingacha keladigan
Toshqin daryoga oʻxshar,
U xalqlarni halokat elagida elaydi.
U elatlarning ogʻziga suvluq soladi–da,
Ularni yoʻldan adashtiradi.

29 Sizlar esa muqaddas bayram* oqshomidagiday qoʻshiqlar kuylaysiz. Egamizning togʻiga*, Isroil xalqining Qoyasiga nay sadolari ostida borayotganlarday yuraklaringiz shodlikka toʻladi. 30 Egamiz Oʻz ulugʻvor ovozini eshittiradi. Ha, qoʻlining zarbasi ogʻirdir. Uning kuchli gʻazabi, yamlamay yutay degan olovga oʻxshaydi. Ha, Uning gʻazabi boʻronu dovul, momaqaldiroq kabidir. 31 Egamiz hassasi bilan Ossuriyani uradi. Oʻz ovozi bilan uni dahshatga tushiradi. 32 Egamiz qayta–qayta Ossuriyani doira va arfa sadolari ostida hassasi bilan jazolaydi. Egamiz Oʻz qoʻlining zarbi bilan jang qilib, ular bilan urishadi.
33 Tofat* allaqachon tayyorlangan. Ha, u hatto Ossuriya shohi uchun ham tayyor turibdi. Bu keng chuqurda alangayu oʻtin moʻl–koʻl. U yerda Egamizning nafasi vulqondan chiqqan olov kabi yondiradi.

31–BOB

Misrning kuchiga ishonma

1 Misrdan yordam so‘rab borganlarning holiga voy!
Ular chopqir otlariga ishonadilar,
Jang aravalarining ko‘pligiyu
Kuchli otliqlarga umid bog‘laydilar.
Isroil xalqining Muqaddas Xudosiga esa
Nazar ham tashlamaydilar,
Egamizga yuz burmaydilar.
2 Dono Egamizning gapiga ular kirmaydilar.
Egamiz fosiqlarning xonadoniga qarshi qo‘zg‘aladi,
Badkirdorlarga yordam berganlarga qarshi turadi.
Ularning boshiga kulfat keltiradi,
Aytgan so‘zlarini U qaytib olmaydi.
3 Misrliklar Xudo emas, insonlardir,
Ularning otlari ruh emas, tanadir.
Egamiz ularga qarshi qo‘l ko‘targanda,
Madadkor qoqiladi,
Madadga zor yiqiladi.
Ikkovi birgalikda halok bo‘ladi.

4 Ha, Egam menga aytmoqda:
“Kuchli sher qo‘yni bo‘g‘izlaganda,
Cho‘ponlar shovqin–suroniga e’tibor bermas,
Ularga hatto nazar ham tashlamas.
Shu singari, Men, Sarvari Olam,
Sion tog‘ida — o‘sha tepalikda
Jang qilishga kelaman.
5 O‘z ini ustida uchayotgan qush kabi,
Men, Sarvari Olam, Quddusni qo‘riqlayman.
Men Quddusni qo‘riqlab, ozod qilaman,
Himoya qilib, najot beraman.”

6 Ey Isroil xalqi! Garchi sizlar shu qadar fosiq isyonchi bo‘lsangiz ham, endi Egamizga qayting! 7 Ha, o‘sha kuni har biringiz oltin butlar va kumush tasvirlarni rad etasiz. Ularni gunohkor qo‘llaringiz bilan yasagan edingiz.

8 Ossuriya vayron bo‘ladi, ammo insonning qilichidan emas.
Xudoning qilichi Ossuriyaliklarni uradi.
Ossuriyaliklar vahimaga tushib qochadilar.
Kuchli, yosh yigitlarini qul qilib olib ketadilar.
9 Ossuriyaning suyangan qoyasi* vahima ichida qochadi,
Lashkarboshilari jangovar bayroqdan qo‘rqib, qochib ketadi.
Ha, Egamizning alangasi Quddusda,

Uning o‘chog‘i Siondadir.
Egamizning kalomi shudir.

32–BOB

Solihlik hukmronlik qiladi

1 Ana, shoh solihlik bilan hukmronlik qiladi,
Hukmdorlar adolat bilan boshqaradi.
2 Har bir odam shamoldan asraydigan panohday bo‘ladi,
Bo‘rondan saqlaydigan boshpana kabi bo‘ladi.
Ular sahrodagi suv o‘zaniga o‘xshaydi,
Tashna yerdagi ulkan qoyaning soyasiday bo‘ladi.
3 Ko‘rib turganlar endi ko‘z yumib yurmaydi,
Qulog‘i borlar endi quloq soladi.
4 Idroksizning aqli anglaydigan bo‘ladi,
Duduq odamning tili ravon bo‘ladi.
5 Ahmoqni endi aslzoda deb chaqirmaydilar,
Yaramasni, hurmatga sazovor, deb aytmaydilar.
6 Mana, ahmoq kaltafahmlik bilan gapiradi,
Fikri–zikri esa yovuzlik bilan band.
Qilganlari — nopoklik,
Egam haqida xato gapiradi.
Och odamni u ochligicha qoldiradi,
Chanqaganga suv bermaydi.
7 Battolning usullari yovuzdir,
U yomonliklar rejalashtiradi,
Yolg‘on gap–so‘zlari bilan
Faqirning haq da’vosini yo‘qqa chiqarib,
Bechorani nobud qiladi.
8 Olijanob odamlar esa yaxshi rejalar tuzadi,
Yaxshi niyat qilib, o‘z so‘zida turadi.

Quddus ayollari to‘g‘risida bashorat

9 Ey siz, beg‘am ayollar,
Turinglar, Menga quloq solinglar!
Ey siz, o‘ziga ishongan qizlar,
Mening gaplarimni eshitinglar!
10 Ey sizlar, beparvo yurganlar,
Bir yil o‘tar–o‘tmas titray boshlaysiz.
Uzum hosili yaxshi bo‘lmaydi,
Meva hosil bermaydi.
11 Qo‘rqing, ey siz, beg‘am ayollar,
Qaltirang, ey o‘ziga ishongan qizlar!
Tavba qilib, kiyimingizni yechib tashlang.
Qanorga o‘ranib, belingizni bog‘lang!
12 Ko‘kragingizga urib yig‘lang

Ajoyib dalalaringiz,
Serhosil uzumzorlaringiz uchun!
13 Xalqimning yeri uchun yig‘lang!
U yerni tikan, yantoq butalari bosib ketadi.
Ha, shodlikka to‘la bo‘lgan uylar uchun,
Quvnoq shahar uchun aza tuting!
14 Mana, saroy tashlandiq bo‘lib qoldi,
Gavjum shahar sahroga aylandi.
Qal’ayu minora to abad
Yovvoyi eshaklar yayraydigan joy,
Chorva uchun yaylov bo‘ldi.
15 Toki yuqoridan ustimizga
Ruh yog‘ilmaguncha shunday bo‘ladi.
Undan keyin sahrolar serhosil dalaga aylanadi,
Serhosil dala o‘rmon sifat bo‘ladi.
16 Shunda odillik sahroda makon qiladi,
Solihlik serhosil dalada maskan qiladi.
17 Solihlik mevasi tinchlik bo‘ladi,
Solihlik samarasi to abad xotirjamlik, ishonch bo‘ladi.
18 Xalqim yashaydi sokin joylarda,
Bexavotir uylarda, xotirjam maskanlarda.
19 O‘sha o‘rmonni do‘l yakson qiladi,
U shahar esa tamomila yo‘q bo‘ladi.
20 Shunday bo‘lsa ham, naqadar baxtlisiz!
Irmoqlar bo‘yida ekin ekasiz.
Chorvayu podangiz yaylovlarni kezib yuradi.

33–BOB

Najot va umid haqida bashorat

1 Ey talanmagan talonchi! Holingga voy!
Ey xiyonatni tatimagan xiyonatkor! Holingga voy!
Rosa talab bo‘lganingdan so‘ng,
O‘zingni talon–taroj qiladilar.
Xiyonatni bas qilganingda,
Senga xiyonat qiladilar.

2 Ey Egamiz, bizga marhamat qil,
Biz Senga umid bog‘laymiz.
Bizga har kuni kuch ato qil,
Kulfat chog‘i esa bizga najot ber.
3 Gumburlagan ovozingdan xalqlar tarqab ketar,
Sen qo‘zg‘alganingda elatlar qochib ketar.
4 Chigirtkalar* yig‘ilganday o‘ljalaring yig‘ilar,
Chigirtkalar uyumi kabi, o‘ljalaringni talon–taroj qilishar.

5 Egamiz yuksalgandir. Ha, Uning maskani yuksakda.
To‘ldirgandir U Quddusni* adolatu solihlik ila.
6 Ey Quddus, U kunlaringiz tinchligini mahkam tutadi,
Uning O‘zi najot, ilm–ma’rifat, donolikning boy manbaidir.
Egamizdan qo‘rqish sizlarning xazinangizdir.

7 Ana qarang! Yahudoning jasur yigitlari
Ko‘chalarda faryod qiladi,
Tinchlik elchilari* achchiq–achchiq yig‘laydi.
8 Katta yo‘llar huvullab qolgan,
Bu yo‘llardan yurmaydi hech kimsa,
Ahdlar buzildi, shaharlar vayron bo‘ldi*,
Inson o‘z qadrini yo‘qotdi.
9 Yurt aza tutdi, azob chekdi.
Lubnon o‘rmonlari isnodga qolib, qurib qoldi.
Sharon tekisligi* sahroga o‘xshab qoldi,
Bashan*, Karmil tog‘idagi daraxtlarning yaproqlari qolmadi.

10 “Endi qo‘zg‘alaman,
— demoqda Egamiz. —
Endi Men yuksalaman,
Ha, O‘zimni baland ko‘taraman.
11 Sizlar esa somonga homilador bo‘lganday,
Foydasiz poyalar tuqqanday bo‘lasiz.
Ruhingiz sizlarni olov kabi yeb bitiradi.
12 Xalqlar yonib, kul bo‘ladi,
Kesilib, olovga tashlangan tikanday bo‘ladi.
13 Ey uzoqdagilar, Mening qilganlarimni eshiting,
Ey yaqindagilar, qudratimni bilib oling!”

14 “Oramizda kim yamlamay yutadigan olov bilan tura oladi?
Oramizdagi kim yonib bitmas alanga yonida qola oladi?” deya
Quddusda gunohkorlar vahimaga tushdi,
Nopoklarni qo‘rquv egallab oldi.
15 Mana, qarang solih yashayotganlarga!
Ular to‘g‘ri gapni gapiradi,
Tamagirlik foydasidan yuz o‘giradi,
Pora olishdan qo‘llarini tiyadi.
Qotillarning fitnalariga qo‘shilmaydi,
Ko‘zlarini yovuzlik jalb qila olmaydi.
16 Ha, shundaylarning maskani yuksaklarda bo‘ladi,
Tog‘lardagi qoyalar boshpanasi bo‘ladi.
Nonu suvi hech qachon yetmay qolmaydi.

17 Mana, ko‘zlaringiz ulug‘vor shohni,

Keng yoyilgan yurtni koʻradi.
18 Shunda oʻtmishdagi qoʻrquvni eslab, deysiz:
“Qani ekan oʻsha bosh lashkarboshi?
Qani oʻsha oʻljalarni oʻlchagan odam?
Qani endi minoralarni sanaganlar?”
19 Sizlar tillarini tushunmaydigan,
Gaplarini anglamaydigan,
Oʻsha takabbur xalqni endi koʻrmaysiz!

20 Mana, qarang Quddusga!
Bayramlarimiz shahriga boqing.
Oʻz koʻzlaringiz bilan Sionni,
Oʻsha osuda maskanni koʻrasiz.
Bu chodir hech qachon koʻchmaydi,
Uning qoziqlari surilmaydi,
Bironta arqoni uzilmaydi.
21 Ha, u yerda qudratli Egamiz bizning Shohimiz boʻladi,
U yerda keng daryolaru irmoqlar boʻladi.
Eshkakli urush kemalari kechib oʻta olmaydi,
Yelkanli jang kemalari ham u yerda suza olmaydi.
22 Axir, Egamiz hukmronlik qiladi,
Uning Oʻzi qonun–qoidani oʻrnatadi.
Egamiz bizning Shohimizdir,
Uning Oʻzi bizga najot beradi.

23 Kemangizning machtasi mustahkam emas,
Uning arqonlari zaiflashgan,
Uning yelkani yoyilmaydi*.
Soʻng moʻl–koʻl oʻlja boʻlinadi,
Hatto choʻloq ham oʻljaga sherik boʻladi.
24 Orangizda hech kimsa, “Men xastaman”, demaydi,
Quddusdagilarning gunohlari kechiriladi.

34–BOB

Egamiz elatlarni jazolaydi

1 Ey elatlar, yaqinroq keling, quloq soling!
Ey xalqlar, diqqat qiling!
Eshiting, ey zamin, zamindagi bor jonzot!
Olamu uning mahsuli, eshiting!
2 Ha, Egamiz butun elatlardan gʻazabda,
Ularning lashkarlariga qahri keldi.
Egamiz ularni tamomila qirib tashlaydi.
Ularni boʻgʻizlashga hukm etgan.
3 Murdalari koʻmilmay qolib ketadi,

Jasadlaridan qo‘lansa hid anqiydi,
Ularning qoni qirlarda daryo bo‘lib oqadi.
4 Samodagi hamma yulduzlar chirib ketadi,
Osmon o‘rama qog‘ozday* eshilib ketadi.
Tokdan qurib tushgan barglar singari,
Daraxtidan to‘kilgan anjir singari,
Samoviy jismlar to‘kilib ketadi.

5 Egam aytar: “Ha, samolarda Mening qilichim paydo bo‘ldi*.
Mana, u Edomga*,
Men halokatga hukm qilgan xalqning boshiga tushadi.”

6 Egamizning qilichi qonga bulg‘angan.
Qo‘zilar, echkilar yog‘iga, qoniga,
Qo‘chqor buyragining yog‘iga to‘ygan.
Ha, Bozrax shahrida* Egamizga qurbonlik bor,
Edom yurtida katta qirg‘in boshlanadi.
7 Yovvoyi buqalar, novvoslar, katta ho‘kizlar ham
Ular bilan birga qirilib ketadi.
Ularning yeri qon bilan sug‘oriladi,
Tuprog‘i yog‘ni shimib oladi.

8 Ha, bu kun Egamizning qasos kunidir.
Quddus* uchun Egamiz qasos oladigan yildir bu.
9 Edom irmoqlari qatronga aylanadi,
Tuprog‘i oltingugurtga aylanadi,
Butun yurt esa alanga ichida qoladi.
10 Alanga kechayu kunduz o‘chmaydi,
Tutun abadiy ko‘tarilaveradi.
Bu yurt avlodlar osha
Vayrona bo‘lib qolaveradi.
Hech kim uni to abad bosib o‘tmaydi.
11 U yer boyqushlaru kirpilarning mulki bo‘ladi,
Ukkiyu* qarg‘alar u yerda makon qiladi.
Ha, Egamiz bu yurtni o‘lchab,
Vayronayu xarobaga loyiq topdi.
12 Bu yurtda aslzodalar yo‘q endi,
U yerdan birorta shoh chiqmaydi,
Barcha shahzodalari yo‘q bo‘lib ketadi.
13 Qal’alarida tikanlar o‘sadi,
Saroylarida yantoqlar, qushqo‘nmas butalar bitadi.
U yer chiyabo‘rilarga maskan bo‘ladi,
Tuyaqushlarning boshpanasi bo‘ladi.
14 Yovvoyi mushuklaru sirtlonlar
Bir–biriga duch keladi,

Yovvoyi echkilar bir–birini chaqirib ma’raydi,
U yerda tun sharpalari dam oladi,
O‘sha yer ularga oromgoh bo‘ladi.
15 Ilonlar* u yerda in qurib, tuxum qo‘yadi,
Soya joylarda bolalarini yig‘adi.
Quzg‘unlar u yerda juftlanib to‘planadi.
16 Mana, Egamizning kitobidan* topib, o‘qing:
Hayvonlaru qushlardan birontasi yo‘q bo‘lmaydi,
Ularning hammasi juft–juft bo‘ladi,
Egamizning O‘zi shunday amr etgan,
Uning Ruhi hammasini to‘pladi.
17 Egamiz qur’a tashlab, har birining ulushini berdi,
Arqon bilan o‘lchab, yurtni ularga bo‘lib berdi.
Bu yurt to abad ularning mulki bo‘ladi,
Avlodlar osha ular bu yerda yashaydi.

35–BOB

Najot topishga umid

1 Cho‘lu biyobon shod bo‘ladi,
Sahro quvonib, atirgulday gullaydi.
2 Hamma yoqda gul–chechaklar ochiladi,
Cho‘l shodlanib, quvonchdan hayqiradi.
Lubnonning chiroyi, Karmil tog‘ining,
Sharon tekisligining* ulug‘vorligi Unga beriladi.
Ular Egamizning shuhratini,
Xudoyimizning ulug‘vorligini ko‘radi.

3 Qo‘llari charchaganlarga dalda bergin,
Tizzalari bukilganlarga madad bergin.
4 Qo‘rqoq yuraklarga shunday deb aytgin:
“Dadil bo‘ling, qo‘rqmang!
Mana, Xudoyingiz!
Qasos kelmoqda ilohiy intiqom ila,
Uning O‘zi sizlarga najot beradi.”

5 O‘sha paytda ko‘rlarning ko‘zlari ochiladi,
Karlarning quloqlari esa eshitadi.
6 Cho‘loq ham ohuday sakraydi,
Soqov shodlikdan hayqiradi.
Mana, axir, sahroda suv sharillab oqmoqda,
Cho‘l joylar esa irmoqlarga to‘la.
7 Qizib yotgan qum hovuzga aylanadi,
Qaqragan yer qaynayotgan buloq bo‘ladi.
Oldin chiyabo‘rilar yashagan maskanlarda

Endi maysa, qamish, papiruslar oʻsadi.

8 Oʻsha yerdan katta yoʻl oʻtadi,
Muqaddas Yoʻl deb atalgan yoʻl boʻladi.
Nopoklar u yoʻlga qadam bosmaydi,
Bu yoʻl mana shu yoʻldan yuradiganlarga qarashlidir.
Bu yoʻldan yuradiganlar,
Hatto idroksizlar ham adashmaydi*.
9 U yerda sher boʻlmaydi.
Yirtqich hayvon yurmaydi.
Ular bu yerda topilmaydi.
Ha, faqat najot topganlar oʻsha yerda yuradi.
10 Egamiz qutqarganlar qaytib keladi,
Ular qoʻshiq aytib, Quddusga* kiradi.
Boshlarida abadiy shodlik toji boʻladi,
Shod–xurramlik ularni qamrab oladi,
Qaygʻu, gʻamlar yoʻq boʻlib ketadi.

36–BOB

Ossuriya qoʻshini Quddusga tahdid soladi

1 Hizqiyo hukmronligining oʻn toʻrtinchi yilida* Ossuriya shohi Sanxariv* Yahudo yurtiga hujum qildi. Uning hamma mustahkam shaharlarini bosib oldi. 2 Laxish shahridan* Ossuriya shohi oʻz mulozimini katta lashkar bilan Quddusga, shoh Hizqiyo huzuriga yubordi. U Yuqori hovuz arigʻi yonida toʻxtadi. Bu ariq kir yuvuvchining dalasiga boradigan yoʻlda edi. 3 Shunda Xilqiyo oʻgʻli Eliyaqim, Shavna va Osif oʻgʻli Yoʻx Quddusdan chiqib, mulozimning yoniga bordilar. Shoh Hizqiyoning saroyida Eliyaqim bosh vazir boʻlib, Shavna kotib, Yoʻx esa mushovir boʻlib xizmat qilar edilar.
4 Mulozim ularga shunday dedi:

"Ulugʻ Ossuriya shohining shu gaplarini Hizqiyoga yetkazing: «Nimangga ishonyapsan oʻzi? 5 Harbiy mahoratingdan va kuch–qudratingdan gapiryapsan, lekin bular quruq gaplar–ku! Kimingga ishonib menga itoat etmayapsan? 6 Ha, sen Misrga ishonyapsan. Lekin Misr yoriq qamishdan qilingan hassaga oʻxshaydi–ku! Unga suyansang, qoʻlingga sanchiladi. Misr fir'avniga ishonganlarning hammasi shu ahvolga tushadi. 7 Balki sizlar: 'Biz Egamiz Xudoga ishonamiz', deb aytarsizlar menga. Axir, Hizqiyo oʻsha Egangizning sajdagohu* qurbongohlarini buzib tashlab, Yahudo xalqiga va Qudduslikларga: 'Faqatgina Quddusdagi qurbongohning oldida sajda qilinglar', deb aytgan ekan–ku!*»
8 Kelinglar, endi Ossuriya shohi janobi oliylari nomidan sizlar bilan bir garov oʻynaylik. Biz sizlarga ikki mingta ot beramiz, qani, ularni minishga odam topinglar–chi! 9 Qani, koʻraylik–chi, shohimning qullari orasidagi eng kichik bir lashkarboshisini magʻlub qila olasizmi?! Axir, oʻzingiz Misrning jang aravalariyu otliqlariga* umid bogʻlab oʻtiribsiz. 10 Qolaversa, bizni Egangizning xohishisiz bu yurtni vayron qilishga kelgan, deb oʻylaysizlarmi? Egangizning Oʻzi bizga: «Oʻsha

yurtga borib, u yerni vayron qilinglar», deb amr bergan–ku!”

11 Eliyaqim, Shavna va Yo‘x Ossuriyalik mulozimga:
— Bu qullaringga oramiycha* gapiraver, oramiychani tushunamiz. Ibroniycha gapirma. Tag‘in devor ustidagilar bizning gapimizni eshitib qolmasin, — dedilar.
12 Mulozim esa shunday javob berdi:
— Shohim bu so‘zlarni faqat hukmdoringizga va sizlarga gapirsin, deb meni yuboribdimi?! Devor ustida to‘plangan odamlarga ham gapiryapman–da. Ular ham, sizlar kabi tezaklarini yeb, siydiklarini ichishga giriftor qilingan.
13 So‘ngra u tik turib, baland ovoz bilan ibroniycha gapirdi: “Ulug‘ Ossuriya shohining gaplarini eshiting! 14 Shoh hazratlari shunday aytmoqda: Hizqiyo sizlarni yo‘ldan urmasin. U baribir sizlarni qutqara olmaydi. 15 «Egamiz bizni albatta qutqaradi, bu shahar Ossuriya shohi qo‘liga taslim bo‘lmaydi», deb Hizqiyo sizlarni Egangizdan umidvor qilmasin.
16 Shohingiz Hizqiyoga quloq solmanglar. Mana, Ossuriya shohi aytmoqda: men bilan sulh tuzib, mening oldimga chiqinglar. Shunda har kimga o‘z uzumzoriyu anjir daraxti hosilidan yeyishga, o‘z sardobasidan suv ichishga ijozat beriladi. 17 So‘ngra men sizlarni o‘z o‘lkangizga o‘xshagan bir yurtga olib boraman. U joy bug‘doy, sharob, non, uzumzorlarga boy yurtdir. 18 Yana Hizqiyo: «Egamiz bizni qutqaradi», deb sizlarni aldamasin. Qani, qaysi xalqning xudosi o‘z yurtini men, Ossuriya shohining qo‘lidan qutqaribdi?! 19 Xomat bilan Arpad shaharlarining xudolari qani?! Sefarvayimning* xudolari–chi?! Birorta xudo Samariyani* mening qo‘limdan qutqara olmadi–ku! 20 Jamiki xalqlarning xudolaridan qaysi biri o‘z yurtini mening qo‘limdan qutqaribdiki, Egangiz Quddusni qutqara olsa?!”
21 Ammo xalq jim turaverdi. Birontasi ham javob bermadi. Chunki shoh Hizqiyo: “Uning gapiga javob qaytarmanglar”, deb farmon bergan edi. 22 Shundan keyin bosh vazir Eliyaqim, kotib Shavna va mushovir Yo‘x qayg‘udan liboslarini yirtib, Hizqiyoning oldiga keldilar–da, Ossuriya mulozimining gaplarini Hizqiyoga aytib berdilar.

37–BOB

Shoh Hizqiyo Ishayodan maslahat so‘raydi

1 Shoh Hizqiyo bularni eshitgach, qayg‘udan liboslarini yirtdi. Qanorga o‘ranib*, Egamizning uyiga bordi. 2 U bosh vazir Eliyaqimni, kotib Shavnani va oqsoqol ruhoniylarni Omiz o‘g‘li Ishayo payg‘ambarning huzuriga yubordi. Hammalari qanorga o‘ranib olgan edilar. 3 Ular Ishayoning huzuriga borib, shunday dedilar:
— Hizqiyo aytyaptiki: “Bugun jafo chekyapmiz, jazo olyapmiz, sharmanda bo‘lyapmiz. Biz tug‘ayotgan, lekin tug‘ish uchun madori qolmagan ayolga o‘xshaymiz.
4 Barhayot Xudoni tahqirlash uchun Ossuriya shohi o‘zining mulozimini yuboribdi. Mulozimning so‘zlarini koshkiydi Egangiz Xudo eshitsa–yu, o‘sha so‘zlari uchun ularni jazolasa. Endi shahardagi tirik qolganlar uchun iltijo qiling.”
5 Shohning aytib yuborgan bu xabarini Ishayo eshitgach, 6 Hizqiyoning a’yonlariga shunday dedi:
— Shohingizga shu gaplarni yetkazinglar: “Egamiz shunday aytmoqda: Ossuriya shohining qullari Meni haqoratlab aytgan so‘zlaridan qo‘rqma. 7 Men Ossuriya shohining

yuragiga g‘ulg‘ula solaman, u bir mish–mishni eshitib, o‘z yurtiga qaytib ketadi. Unga o‘z yurtida ajal keltiraman.”

Ossuriya shohining Hizqiyoga maktubi

8 Ossuriya shohi Sanxarivning Laxish shahridan* qaytib ketganini eshitib, shohning
mulozimi ham orqasiga qaytdi. Shohni Libna shahriga qarshi urishayotgan yerida topdi.
9-10 Sanxariv: “Habashiston* shohi Tirxoqo sen bilan urush qilgani otlandi” degan
xabarni eshitdi. U Habashistonga qarshi jang boshlashdan oldin Yahudo shohi Hizqiyoga
yana odamlari orqali shu gapni yetkazdi:

> “Umid qilgan xudoying seni aldamasin: «Quddus Ossuriya shohiga taslim
> bo‘lmaydi», deb seni laqillatmasin. 11 Axir, o‘zing eshitgansan–ku! Ossuriya
> shohlari hamma yurtlarni yer bilan yakson qilgan. Endi sen qutulaman, deb
> o‘ylayapsanmi?! 12 Otalarim qancha xalqlarni xonavayron qildi. Ularni xudolari
> qutqarmadi–ku! Gozan, Xoron, Razaf aholisi, Talassarda yashagan Eden xalqlari
> qutula oldimi?! 13 Qani, ayt–chi, Xomat shahrining shohi qani endi?! Arpad,
> Sefarvayim, Xana, Ivvax shaharlarining shohlari qayerda?!”

14 Hizqiyo xabarchilarning qo‘lidan maktubni olib o‘qigach, Egamizning uyiga kirdi.
Maktubni Egamizning oldida ochib, yerga yoydi va 15 yolvorib ibodat qildi: 16 “Ey ikki
karub* orasida taxt qurgan Isroil xalqining Xudosi — Sarvari Olam! Butun yer yuzidagi
shohliklarning tanho Xudosi Sensan. Osmonni va yerni Sen yaratgansan. 17 Ey Egamiz!
Quloq solib, eshit. Ey Egamiz, ko‘zlaringni ochib, qara. Sanxarivning hamma
aytganlarini, u barhayot Xudoni qanday haqoratlaganini bilib qo‘y. 18 Ey Egamiz! Biz
bilamizki, Ossuriya shohlari hamma xalqlarni va ularning yurtlarini vayron qilganlar.
19 O‘sha xalqlarning xudolarini olovda yoqib, yo‘q qilganlar. Chunki o‘sha narsalar
xudolar emas, balki inson qo‘li bilan yog‘ochdan, toshdan yasalgan narsalar edi. 20 Ey
Egamiz Xudo! Endi Sen bizni Sanxarivning qo‘lidan qutqargin, toki butun yer yuzidagi
shohliklar Sening tanho Egamiz ekaningni bilishsin!*”

Ishayo shoh Hizqiyoga Xudoning so‘zini yetkazadi

21 Omiz o‘g‘li Ishayo Hizqiyoga shunday xabar yubordi:

> “Isroil xalqining Xudosi — Egamiz aytmoqda: «Ossuriya shohi Sanxariv
> haqida qilgan iltijolaringni eshitdim.» 22 Egamiz unga qarshi shu so‘zlarni menga
> ayon qildi:
>
> «Bokira qiz* Quddus sendan nafratlanadi,
> Ustingdan kuladi.
> Go‘zal Sion* orqangdan masxara qiladi,
> Boshini chayqaydi.
>
> 23 Kimni haqorat qilding o‘zi?
> Kimni tahqirlading?
> Kimga qo‘rs gapirding?
> Kiborlarcha boqding, hey?
> Isroil xalqining Muqaddas Xudosiga!

24 Xabarchilaring orqali Men, Rabbiyni haqorat qilding.
O‘zing haqingda aytdingki:
‘Ko‘plab jang aravalarim bilan tog‘ cho‘qqilarini zabt etdim.
Lubnondagi inson qadami yetmagan joylarga yetib bordim.
Eng baland sadr daraxtlarini,
Eng a’lo sarv daraxtlarini qo‘pordim.
Lubnonning eng uzoq tepaliklariga,
Hatto eng qalin o‘rmonlariga yetib bordim.
25 Men quduqlar qazib,
Suvlaridan ichdim.
Misrning hamma daryolarini
Oyog‘im kafti bilan quritdim.’

26 Eshitmaganmisan, ey Sanxariv,
Ancha oldin mo‘ljallab qo‘ygan edim,
Buni azaldan reja qilgan edim.
Endi amalga oshirdim.
Qal’alarni vayronaga aylantirsin deb,
Men senga kuch berdim.
27 Qo‘lu qanoti qirqildi shahar ahlining,
Vahimaga tushib, uyatga qoldilar.
Ular dalada o‘sgan o‘t, yangi maysalar kabidir.
Tomlarda o‘sgan maysalarga* o‘xshab,
Yetilmasdan oldin qurib qoldilar*.

28 Seni har tomondan bilaman, ey Sanxariv!
Qachon urushga chiqib,
Uyingga qachon qaytishingni ham bilaman.
Bilaman: Mendan g‘azabdasan.
29 Mendan qattiq g‘azabdasan.
Manmanliging qulog‘imga yetib keldi.
Endi Men burningdan halqamni,
Og‘zingdan suvlig‘imni o‘tkazaman*.
Kelgan yo‘lingdan seni qaytarib olib ketaman.»

30 Ey Hizqiyo, mana bular sen uchun nishona bo‘ladi: bu yil o‘z–o‘zidan yerdan o‘sib chiqqanlarni tanovul qilasiz. Ikkinchi yili ham o‘rnidan o‘sib chiqqanini yeysiz. Uchinchi yil esa urug‘ ekib, hosil o‘rasiz. Uzumzorlar barpo qilib, mevasin tanovul qilasiz. 31 Yahudo xalqining qutulib qolganlari yana ildiz otib, meva beradi. 32 Xalqning qolgani Quddusdan, qutulganlari Sion tog‘idan keladi. Sarvari Olam O‘z g‘ayrati bilan buni amalga oshiradi.

33 Ossuriya shohi to‘g‘risida Egamiz shunday aytmoqda: Sanxariv bu shaharga kirolmaydi, o‘qlar otolmaydi. Qalqoni bilan shaharga yaqinlashmaydi, shahar devoriga qiyalatib tuproq uydirmaydi*. 34 Kelgan yo‘lidan qaytib ketadi, shaharga kirmaydi, — deb aytmoqda Egamiz. 35 — O‘zimning haqi–hurmatim, qulim

Dovudning haqi–hurmati bu shaharni himoya qilib, saqlayman.”

36 Egamizning farishtasi Ossuriyaliklarning qarorgohiga borib, 185.000 kishini
o‘ldirdi. Ertasiga uyg‘onib qarasalar, qarorgoh jasadga to‘lib ketibdi! 37 Ossuriya shohi
Sanxariv qarorgohni tashlab, orqaga qaytdi. O‘z uyi Naynavoga* qaytib, o‘sha yerda
yashadi. 38 Sanxariv o‘z xudosi Nisroxning uyida sajda qilayotgan edi, o‘g‘illari
Odrammalek bilan Sarizar unga qilich urib o‘ldirdi. Ikkovi ham Ararat yurtiga* qochib
ketdi. Sanxarivning o‘rniga o‘g‘li Isarxaddo‘n shoh bo‘ldi*.

38–BOB

Hizqiyo kasal bo‘lib qoladi

1 O‘sha kunlari Hizqiyo tuzalmas xastalikka yo‘liqib, o‘lim to‘shagiga yotib qoldi.
Omiz o‘g‘li Ishayo payg‘ambar uning huzuriga kelib, shunday dedi: “Egamiz shunday
aytmoqda: tayyorgarligingni ko‘rib qo‘yaver, endi tuzalmaysan, o‘lasan.”
2 Hizqiyo yuzini devorga burib, Egamizga yolvordi: 3 “Ey Egam! Chin qalbimdan
Senga sodiq bo‘lib, yo‘llaringdan yurganimni va oldingda to‘g‘ri ishlar qilganimni esla.”
Shunday deb achchiq–achchiq yig‘ladi.
4 Shundan keyin Ishayoga Egamizning quyidagi so‘zi ayon bo‘ldi: 5 “Borib, Hizqiyoga
shunday deb ayt: «Bobong Dovudning Xudosi — Egamiz shunday aytmoqda:
iltijolaringni eshitdim, ko‘z yoshlaringni ko‘rdim. Umringni yana o‘n besh yilga
uzaytiraman. 6 Seni va bu shaharni Ossuriya shohining qo‘lidan xalos qilaman. Ha, bu
shaharni himoya qilaman. 7 Ey Hizqiyo! Men, Egang, bergan va’damni bajaraman. Mana
senga Mendan alomat: 8 ana qara! Botayotgan quyosh Oxozning zinapoyasiga* soya
tushirib turibdi. O‘sha soyani o‘n qadam orqaga surdiraman.»”
Shunday qilib, soya o‘n qadam orqaga ketdi.

9 Shoh Hizqiyo sog‘aygandan keyin quyidagi she’rni yozdi:

10 “Men aytdim:
Nahotki hayotim cho‘qqisida
O‘liklar diyoriga* borsam?!
Umrimning qolgani xazon bo‘lsa?!
11 Nahot, Egamni endi ko‘rmasam?!
Ha, Uni ko‘rmasman bu yorug‘ dunyoda.
Tirik zotlarni endi ko‘rmayman.
Bu dunyodagilar bilan bo‘lmayman.
12 Cho‘ponning chodiri yig‘ilganiday
Mening umrim uzildi,
Mendan tortib olindi.
Umrim to‘quvchining matosi kabi bitdi.
Uning dastgohidagi ipday
Mening umrim ham qirqildi.
Ey Rabbiy, tunu kun meni qiynaysan.
13 Tonggacha faryod qildim,
Sherday hamma suyaklarimni sindirasan.

Ey Rabbiy, tunu kun meni qiynaysan.
14 Qaldirg‘ochu turnaday nola chekdim,
Musichaday oh–voh qildim.
Yuqoriga qarayverib, ko‘zlarim toldi,
Ey Rabbiy, ezildim, yordam ber menga!

15 Endi men nima desam ekan?!
Egam menga nima aytgan bo‘lsa,
Uning O‘zi o‘shani qildi.
Jonim tortgan bu azoblar tufayli
Umrim bo‘yi itoat etib yuraman*.
16 Ey Rabbiy, Sening tarbiyang yaxshidir,
Chunki u hayotu sog‘likka yetaklaydi.
Sen menga sog‘ligimni qaytarding,
Menga qayta hayot baxsh etding.
17 Mana, hamma qiyinchiligim
Yaxshilikka aylandi.
Qabrdan meni saqlading*,
Hamma gunohlarimni kechirding.
18 Axir, o‘liklar diyori* Senga shukur qilmaydi,
O‘lim Senga hamdu sano aytmaydi.
Qabrga boradiganlar
Sening sadoqatingdan umid qilmaydi.
19 Mana, men Senga shukur aytmoqdaman.
Axir, tiriklar, faqatgina tiriklar
Senga shukur aytadilar–ku!
Otalar o‘zlarining farzandlariga
Sening sadoqatingni bildiradilar.

20 Egam meni qutqaradi.
Butun umrimiz bo‘yi torli asboblar ila
Egamning uyida kuylaymiz.”

21 Ishayo shunday degan edi: “Anjir shirasini olib, yaraning ustiga qo‘yinglar. Shunda Hizqiyo sog‘ayadi.” 22 Buni eshitgan Hizqiyo: “Egamizning uyiga borishimni qanday bilaman? Buni nima isbotlaydi?” deb so‘ragandi*.

39–BOB

Bobildan kelgan elchilar

1 O‘sha paytlarda Bobil shohi Baladon o‘g‘li Marduxbaladon* shoh Hizqiyoga maktublaru hadyalar jo‘natdi. U Hizqiyoning xastalanib, keyin sog‘ayganini eshitgandi.
2 Hizqiyo elchilarni ko‘rib xursand bo‘ldi. Xazinasidagi bor narsa — omborlardagi hamma qimmatbaho ashyolarini, oltinni, kumushni, xushbo‘y ziravorlarni va moylarni, butun qurol–yarog‘ omborini ularga ko‘rsatdi. Hizqiyoning saroyidayu o‘z shohligida ularga ko‘rsatmagan hech narsasi qolmadi.

3 Ishayo payg‘ambar shoh Hizqiyoning huzuriga kelib:
— Bu odamlar qayerdan kelibdi? Senga nimalar dedi? — deb so‘radi.
— Uzoq bir yurtdan, Bobildan kelibdilar, — deb javob berdi Hizqiyo.
4 — Ular saroyingda nimalarni ko‘rdi? — deb so‘radi Ishayo.
— Saroyimdagi hamma narsani ko‘rdilar, — deya javob berdi Hizqiyo. — Xazinalarimda men ularga ko‘rsatmagan hech narsa qolmadi.
5 Shunda Ishayo aytdi:
— Endi Sarvari Olamning so‘ziga quloq sol. 6 Egamiz aytmoqdaki: “Bir kun kelib, saroyingdagi hamma narsa, ota–bobolaringning bugungacha to‘plab qoldirganlari Bobilga tashib ketiladi. Hech narsa qolmaydi. 7 Sening pushti kamaringdan bino bo‘lgan o‘g‘illaringdan ba’zilari ham olib ketiladi. Ular Bobil shohining saroyida bichilgan qullar bo‘lib xizmat qiladi.”
8 Hizqiyo Ishayoga:
— Egamiz sen orqali aytgan so‘zlar xosiyatlidir, — dedi–da, ichida: “Umrim oxirigacha tinch, xotirjam yashar ekanman–ku”, deb o‘yladi.

40–BOB

Xudoning xalqiga tasalli so‘zlari

1 “Yupating, xalqimni yupating,
— demoqda Xudoyingiz. —
2 Quddusning ruhini ko‘tarib,
Unga shunday deb ayting:
«Azob kosang to‘lib bo‘ldi,
Ayblaring uchun jazo olib bo‘lding.
Hamma gunohlaring evaziga
Men, Egangdan ikki karra jazo olding.»”

3 Bir ovoz yangramoqda:
“Cho‘lda* Egamizga yo‘l hozirlang,
Sahroda Xudoyimizga to‘g‘ri yo‘l oching.
4 Har bir jarlik yuksaladi,
Har bir tog‘u tepalik pasayadi.
O‘nqir–cho‘nqir joylar tekis bo‘ladi,
O‘ydim–chuqur yer tekislik bo‘ladi.
5 O‘shanda Egamizning ulug‘vorligi zohir bo‘ladi,
Butun jonzot birgalikda buni ko‘radi.
Ha, Egamiz O‘z og‘zi bilan shuni aytdi.”

6 Bir ovoz: “E’lon qil!” deb aytdi,
Ikkinchisi: “Nimani e’lon qilaman?” deb so‘radi*.
Birinchi ovoz shunday dedi:
“Inson zotining hammasi maysaday,
Ularning barcha sodiqligi dala guli kabidir.
7 Ularning ustidan Egamizning nafasi esganda

O‘tlar quriydi, gullar so‘lib qoladi.
Mana, bu xalq maysaning o‘zi.
8 O‘tlar quriydi, gullar so‘lib qoladi,
Xudoyimizning kalomi esa abadiy turadi.”

9 Ey xushxabar keltirgan Quddus,
Baland toqqa chiq!
Ey xushxabar keltirgan Sion*,
Baland ovozda e’lon qil!
Qo‘rqmagin, jar solgin!
Yahudo shaharlariga:
“Mana sizning Xudoyingiz”, deb aytgin.
10 Mana, Egamiz Rabbiy qudrat ila keladi,
Qudrati ila hukmronlik qiladi.
Uning O‘zi taqdirlaydi,
Mukofotini O‘zi bilan olib kelmoqda.
11 Cho‘pon kabi, U O‘z suruvini boqadi,
Qo‘zilarni qo‘llarida ko‘taradi.
Ularni ko‘tarib, bag‘riga bosadi,
Qo‘zilari bilan birga ona qo‘yni
Ehtiyotlab haydab boradi.

Isroilning tengi yo‘q Xudosi

12 Kim hovuchi ila suvlarni o‘lchagan?!
Kim qarichlab osmonni o‘lchagan?!
Zamin tuprog‘ini o‘lchagan bormi?!
Kim tog‘larni tarozida tortib ko‘rgan?!
Tepaliklarni tarozi pallasida tortgan?!
13 Kim Egamizning Ruhiga* yo‘l ko‘rsata oladi?!
Kim Unga maslahat bera oladi?!
14 U kimga maslahat solgan?!
Kim Unga nasihat bergan?!
Kim Unga adolat yo‘lini o‘rgatgan?!
Unga bilim bergan bormi?!
Idrok yo‘llarini Unga ko‘rsatgan bormi?!

15 Axir, elatlar chelakdagi bir tomchi suvdaydir,
Ular tarozi pallasidagi chang kabidir.
Mana, orollarni ham Egamiz changday ko‘taradi.
16 Lubnon yurtidagi hayvonlar qurbonlikka ozlik qiladi,
O‘rmonlarining daraxtlari esa yetarli o‘tin bo‘lmaydi.
17 Jamiki elatlar Egamiz oldida hech nima emas,
Egamiz nazarida ular arzimas, bo‘shliqdir.

18 Xo‘sh, Xudoni kimga o‘xshatasiz?!
Unga qanday qiyofani berarkansiz?!

19 Hunarmand yasagan butning qiyofasinimi?!
Axir, usta butni oltin bilan qoplagan.
Unga kumush zanjirlar yasab bergan.
20 Unday qilishga qurbi yetmagan esa
Chirimaydigan yog‘och topadi.
Mohir ustani yollab,
Yiqilib tushmaydigan but yasattiradi.

21 Bilmaysizmi?! Eshitmaganmisiz?!
Boshidan sizga aytilmaganmi?!
Dunyo poydevoriga qarab ham tushunib yetmaysizmi?!
22 Xudo osmon gumbazi uzra o‘tiradi,
Zamin ahli chigirtka kabidir.
Xudo osmonni parda kabi yoygan,
Odamzod makon qilsin deya, chodir kabi qurgan.
23 Shahzodalarni U pastga uradi,
Zamin hukmdorlarini yo‘qqa chiqaradi.
24 Evoh, ular ekilishi bilanoq qurib qoladi.
Yerga o‘tqazilishi bilanoq so‘lib qoladi.
Ildiz otishi bilanoq qurib qoladi.
Ha, Egamizning nafasi ularni quritadi.
Bo‘ron ularni somonday uchirib ketadi.

25 “Meni kimga qiyoslaysiz?
Kim Menga teng kela olar?”
— deb aytadi Muqaddas Xudo.
26 Ko‘zlaringizni osmonga tiking, qarang:
Axir, bularni kim yaratgan?
Xudo osmonga yulduzlarni terib qo‘ygan–ku!
Uning O‘zi har biriga nom bergan–ku!
O‘zining buyuk kuchi, ulug‘ qudrati bilan
Har birini o‘z joyiga chiqarmay qo‘ymaydi.

27 Ey Yoqub nasli, nima uchun sen:
“Boshimga tushganni Egamiz ko‘rmaydi”, deysan?
Ey Isroil xalqi, nima uchun sen:
“Mashaqqatlarimni Xudoyim unutgan”, deb aytasan?
28 Nahotki bilmaysan? Nahotki eshitmagansan?
Egamizning O‘zi abadiy Xudo–ku!
Butun olamni U yaratgan–ku!
U charchamaydi, holdan toymaydi,
Uning donoligini bilib bo‘lmaydi.
29 U toliqqanga kuch beradi,
Zaifning kuchiga kuch qo‘shadi.
30 Hatto yoshlar charchaydi, holdan toyadi,

Yigitlar qoqilib, yiqiladi.
31 Egamizdan umid qilganlar esa
Yangidan kuch oladi,
Burgut singari parvoz qiladi.
Ular yugurib, charchamaydi,
Yurib ham hech toliqmaydi.

41–BOB

Xudoning Isroil xalqiga bergan va’dasi

1 Egam aytar: “Mening oldimda sukut saqlang,
Ey dengiz ortidagi yurtlar!
Xalqlarning kuchi qayta tiklansin.
Ular yaqinroq kelib, gapirsinlar.
Hukm qilishga birga yig‘ilaylik.

2 Kim sharqdan g‘olib shohni* chaqirdi?!
Kim uni O‘z xizmatiga chaqirdi?!
Kim unga elatlarni bo‘ysundiradi?!
Kim shohlarni oyog‘i ostida ezadi?!
G‘olib shoh o‘z qilichi bilan
Ularni chopib tashlaydi,
Yoyi bilan ularni somonday uchiradi.
3 Ularni ta’qib qiladi,
Oyoq bosmagan yo‘ldan yuradi,
O‘sha joylardan eson–omon o‘tadi.
4 Bu voqealar ortida turgan kim?!
Boshidan avlodlarni dunyoga keltirgan kim?!
Men emasmi?!
Azaldan Men sizning Egangizman,
Oxirgacha ham Egangiz bo‘laman.

5 Dengiz ortidagi yurtlar
Buni ko‘rib, qo‘rqadi.
Yer yuzining to‘rt burchidan titrab,
Ular yaqinlashib keladi.
6 «Qo‘rqmagin», deya hamma
Bir–biriga dalda beradi.
7 Mana, hunarmand odam
Tilla ustasiga dalda beradi.
Misgar: «Ha, yaxshi chiqdi», deb
Temirchiga dalda beradi.
Yiqilib tushmasin deb, butni mixlab qo‘yadi.

8 Ammo sen–chi, ey qulim Isroil,
Ey O‘zim tanlagan Yoqub nasli,

Do‘stim Ibrohimning avlodi!
9 Seni yerning to‘rt burchidan olib keldim,
Yerning olis burchaklaridan chaqirdim.
Aytdimki: «Sen Mening qulimsan,
Seni tanladim, rad etmadim.»
10 Qo‘rqma, Men sen bilan birgaman,
Vahimaga tushma, Men sening Xudoyingman.
Senga kuch beraman, O‘zim yordamga kelaman,
G‘olib o‘ng qo‘lim bilan seni qo‘llayman.
11 Ha, senga qarshi bo‘lganlarning hammasi
Sharmandayu sharmisor bo‘lib qoladi,
Dushmanlaring yo‘q bo‘ladi, nobud bo‘ladi.
12 Urush qiladiganlarni izlab ham topa olmaysan,
Sen bilan jang qilganlar tamomila tugab bitadi.
13 Men O‘zim, Egang Xudo, o‘ng qo‘lingni kuchaytiraman,
Senga: «Qo‘rqma, O‘zim yordamga kelaman» degan Menman.”

14 Egamiz shunday aytmoqda:
“Qo‘rqma, ey Isroil xalqi, Yoqub nasli!
Sen kichkina bir chuvalchangdaysan.
Ammo O‘zim senga yordam beraman.
Men, Isroil xalqining Muqaddas Xudosi,
Sening qutqaruvchingman.
15 Sendan bug‘doy yanchadigan xo‘ptir* yasayman,
Yangi, o‘tkir, tishli xo‘ptir qilaman,
Sen tog‘larni yanchasan, ezasan,
Tepaliklarni* somon qilasan.
16 Sen ularni sovurib tashlaysan,
Ularni shamol uchirib ketadi.
Bo‘ron ularni to‘zg‘itadi,
Sen esa Men — Egang tufayli sevinch topasan,
Isroil xalqining Muqaddas Xudosi ila maqtanasan.

17 Qashshoqlaru muhtojlar suv izlar,
Ammo suv yo‘q.
Og‘izlari chanqoqdan qurib ketgan.
Men, Egangiz, ularga javob beraman,
Men, Isroil xalqining Xudosi, ularni tark etmayman.
18 Yalang‘och tepaliklardan daryolar o‘tkazaman,
Vodiylar o‘rtasida buloqlar ochaman.
Sahrolarni suv to‘la hovuzlarga aylantiraman,
Qaqragan yerda buloqlar ochaman.
19 Cho‘lda sadr, akas, zaytun daraxtlarini,
Hamda mirta butalarini* o‘stiraman,
Sahroda sarv, archa, qarag‘ay daraxtlarini o‘stiraman.

20 Mana, hamma koʻrib bilsin,
Bularni Men, Egangiz,
Oʻz qoʻlim bilan qilganimni ular tushunsin.
Men, Isroil xalqining Muqaddas Xudosi,
Bularni yaratganimni ular anglab yetsin.”

Butlar foydasizdir

21 Yoqub naslining Shohi — Egamiz, shunday deydi:
“Da’volaringizni ayting,
Isbotingizni keltiring.
22 Qani, butlaringizni olib keling,
Kelajakda nima boʻlishini
Butlaringiz aytib bersin.
Oʻtmishda boʻlganlarni tushuntirsin–chi!
Oʻshalar haqida oʻylab koʻraylik.
Oxiri nima boʻlishini bilaylik.
Ha, boʻladiganlarni bizga aytsin.
23 Ey butlar! Kelajakni bizga bildiring,
Shunda xudo ekanligingizni bilamiz.
Biron yaxshilik yoki yomonlik qilib koʻring–chi,
Koʻrib, birgalikda vahimaga tushaylik.
24 Axir, sizlar hech nima emassiz,
Ishlaringiz esa undan ham battar.
Sizni tanlaganning oʻzi jirkanchdir.

25 Men shimoldan bir yetakchi* chaqirdim.
Ana, u keladi.
Sharqdan kelib, Mening nomimga shuhrat keltiradi.
Hukmdorlarni u tuproqday oyoq osti qiladi,
Kulolning loyiday qilib tepkilaydi.
26 Kim buni oldindan aytibdiki, biz bilibmiz?!
Kim buni ilgari bildiribdiki, «U haq edi», deb aytsak?!
Butlar bu haqda gapirmadi, xabar bermadi,
Hech kim ularning ovozini eshitmadi.
27 Men, Egangiz, birinchi boʻlib bu xushxabarni Quddusga yetkazdim,
Sionga elchi joʻnatib, shunday deb aytishni buyurdim:
Xalqing kelyapti! Ular uylariga qaytib kelishyapti!
28 Men butlarga qaradim,
Lekin ular Menga hech narsa aytmadi.
Savolimga ular javob bermadi.
29 Qarang, butlarning hammasi soxta,
Qilgan ishlari hech nima emas,
Hamma butlar shamolday behuda.”

42–BOB

Egamiz tanlagan qul

1 Egam aytar: “Mana Mening qulim,
O‘zim uni qo‘llab–quvvatlayman.
Men O‘zim uni tanlaganman.
Undan juda mamnunman.
Men unga O‘z Ruhimni berdim,
U elatlarga adolat keltiradi.
2 U baqirmaydi, qattiq gapirmaydi,
Ko‘chalarda ovozini baland ko‘tarmaydi.
3 Ezilgan qamishni sindirmaydi,
Tutayotgan pilikni o‘chirmaydi,
Sodiq bo‘lib, adolat keltiradi.
4 Yer yuzida adolat o‘rnatmaguncha
U holdan toymaydi,
Uning jasorati so‘nmaydi.
Dengiz ortidagi yurtlar
Uning yo‘l–yo‘riqlarini kutadi.”

5 Xudo, bizning Egamiz shunday aytmoqda:
“Men osmonni yaratib, uni yoyganman*,
Yerni yaratib, uni to‘ldirganman,
Yer yuzidagi insonlarga jon ato qilganman,
Jamiki odamzodga hayot berganman.
6 Men, Egang, najot olib kelish uchun seni chaqirdim.
Men sening qo‘lingni kuchaytiraman,
O‘zim seni himoya qilaman.
Xalqim bilan tuzgan ahdimni
Sen orqali amalga oshiraman,
Jamiki elatlarga sen orqali nur sochaman.
7 Sen ko‘rlarning ko‘zlarini ochasan,
Mahbuslarni zindondan ozod qilasan,
Zulmatda o‘tirganlarni qutqarasan.
8 Men Egangizman!
Mening nomim shudir!
Men shuhratimni birovga bermayman,
O‘zimga munosib bo‘lgan hamdu sanoni
Butlar bilan baham ko‘rmayman.
9 Men sizlarga kelajakdagi voqealarni
Yuz bermasdan oldin aytyapman.
Oldin ayon qilganlarimga qarang,
Ana, o‘shalar bajo bo‘ldi–ku!”

Hamdu sano madhiyasi

10 Egamizga yangi bir qo‘shiq ayting!

Yer yuzining har bir chetidan
Egamizni tarannum eting!
Ey kemalarda suzib keladiganlar,
Dengizdagi barcha jonzotlar,
Egamizga qo‘shiq ayting!
Ey dengiz ortidagi yurtlaru
Bu yurtlarni to‘ldirganlar,
Egamizga qo‘shiq ayting!
11 Sahrolar, u yerdagi shaharlar xitob qilsin,
Kedar* qishloqlarining ahli shod bo‘lsin!
Sela* ahli shodlikdan kuylasin,
Tog‘ cho‘qqilaridan hayqirsin!
12 Ular Egamizni ulug‘lasin,
Dengiz ortidagi yurtlarda ham
Unga hamdu sanolar aytsin!
13 Egamiz bahodir yigitday olg‘a bosadi,
U g‘ayratli jangchiday keladi, xitob qiladi.
Hayqirib, dushmanlaridan ustunligini ko‘rsatadi.

Xudoning madadkor so‘zi

14 Egam aytar: “Uzoq vaqt sukut saqladim,
Jim turdim, O‘zimni tutdim.
Endi esa tug‘ayotgan ayolday
Og‘ir nafas olaman, faryod qilaman.
15 Tog‘u tepaliklarni vayron qilaman,
Jamiki o‘t–o‘lanni quritaman,
Irmoqlarni quruq yerga* aylantiraman,
Hatto botqoqliklarni quritaman.
16 Ko‘zi ojizlarni bilmagan yo‘llaridan boshlab boraman,
Ularni notanish so‘qmoqlardan olib boraman.
Ko‘zlaridagi zulmatni nurga aylantiraman,
O‘nqir–cho‘nqir yo‘llarni tekislayman.
Mana shu aytganlarimni qilaman,
Ularni tark etmayman.
17 Butlarga ishonganlar uyatga qoladi.
Ha, butlarni «xudolarimiz» deydiganlar
Sharmandayu sharmisor bo‘ladi.

Noshud Isroil xalqi

18 Eshiting, ey karlar,
Qarang, ko‘rib qo‘ying, ey ko‘rlar!
19 Mening qulimday ko‘r bo‘lgan bormi?!
Men yuborgan xabarchiday kar bo‘lgan bormi?!
Men tanlaganlarimday ko‘r bo‘lgan bormi?!
Men, Egangizning quliday ko‘r bo‘lgan bormi?!
20 Ey xalqim! Ko‘p narsalarni ko‘rasiz–u, e’tibor bermaysiz,

Quloqlaringiz ochig‘u eshitmaysiz.”

21 O‘z adolati haqi,
Egamiz O‘z qonunlarini
Ulug‘ va sharafli qilmoqni istadi*.
22 Ammo bu xalq talon–taroj qilingan*,
Hammasi zindonda tutqun, qamoqqa tashlangan.
Ular qo‘lga tushdi, qutqaradigani yo‘q.
Ular o‘lja bo‘ldi, “Qaytarib ber” deydigani yo‘q.
23 Qaysi biringiz bularni eshitasiz,
E’tibor berib, o‘tmishga quloq solasiz?!
24 Yoqub naslini o‘lja qilib qo‘ygan kim?
Isroil xalqini talonchilarga bergan–chi?
Egamiz emasmi?!
Axir, biz Unga qarshi gunoh qildik–ku!
Uning yo‘lidan yurishni istamadik,
Uning yo‘l–yo‘riqlariga quloq solmadik.
25 Shu bois Egamiz qaqshatqich g‘azabini,
Shafqatsiz urushni boshingizga keltirdi.
Alanga sizni o‘rab olsa ham tushunmadingiz,
Sizlarni kuydirsa ham, anglab yetmadingiz.

43–BOB

Isroil xalqining qutqaruvchisi Egamizdir

1 Endi, ey Yoqub nasli, seni yaratgan Egamiz gapirmoqda!
Ey Isroil xalqi, seni barpo qilgan
Egamiz shunday aytmoqda:
“Men seni qutqardim,
Sening ismingni aytib chaqirdim,
Sen Menikisan, qo‘rqma!
2 Suvlardan o‘tganingda
Men sen bilan birga bo‘laman.
Daryolardan o‘tganingda
Suvlar seni ko‘mmaydi.
Olovdan o‘tganingda
Alanga seni yondirmaydi,
Olov tafti seni kuydirmaydi.
3 Ha, Men Egang Xudodirman,
Isroil xalqining Muqaddas Xudosi — qutqaruvchingman.
Sen uchun to‘lov qilib Misrni berdim,
Habashiston*, Savo* yurtlarini sening o‘rningga berdim.
4 Ko‘z oldimda azizsan, qadrlisan,
Men seni sevaman.
Shu bois sening evazingga odamni,

Joning evaziga xalqlarni beraman.
5 Qo‘rqma, Men sen bilan birgaman,
Naslingni sharqdan olib kelaman,
Sizlarni g‘arbdan yig‘ib kelaman.
6 Shimolga: «Ularni ber», deyman.
Janubga: «Ularni ushlab qolma», deb aytaman.
O‘g‘illarim uzoqlardan,
Qizlarim yerning chetlaridan kelsin.
7 Menga tegishli bo‘lganlarni
O‘z shuhratim haqi yaratdim,
O‘zim ijod qilib, ularni bino qildim.”

8 Egamiz shunday demoqda:
“Xalqimni yig‘inglar.
Ko‘zi bor, ammo ko‘r bo‘lgan,
Qulog‘i bor, ammo kar bo‘lgan xalqimni to‘planglar.
9 Jamiki elatlar birga yig‘ilsin.
Qani, xalqlar kelib qo‘shilsin.
Ularning orasidan kim buni aytib beradi?!
O‘tib ketgan narsalarni kim bizga bildiradi?!
Guvohlarini chaqirib, haqligini isbotlasin,
Boshqalar eshitib: «Bu to‘g‘ri», deb aytsin.”
10 Egamiz shunday aytmoqda:
“Sizlar Mening shohidimsizlar,
Sizlar Mening qulimsizlar.
Meni bilsin, Menga ishonsin, deb
Tanho Xudo Men ekanligimni bilsin, deb
Sizlarni tanladim.
Mendan oldin biron xudo bo‘lmagan,
Mendan keyin ham bo‘lmaydi.

11 Men Egangizman!
Yolg‘iz Men Egangizman,
Mendan boshqa qutqaruvchi yo‘q.
12 Men O‘zim aytdim, qutqardim, bildirdim,
Orangizda boshqa biron xudo yo‘q.”
Egamizning kalomi shudir:
“Men Xudoman, sizlar Mening shohidlarimsiz.
13 Ha, azaldan buyon Men O‘shaman,
Hech kim Mening qo‘limdan qutula olmaydi.
Men qilganimni kim bekor qila oladi?!”

Egamiz Isroilni Bobilliklardan qutqaradi

14 Isroil xalqining Muqaddas Xudosi, qutqaruvchingiz —
Egamiz shunday demoqda:
“Sizlarni deb Bobil ustiga lashkar yuboraman,

O‘zlari faxrlangan kemalarda
Bobilliklar* qochishga majbur bo‘ladilar.
15 Men Muqaddas Xudoyingiz — Egangizman,
Isroil xalqining Yaratuvchisi — Shohingiz Menman.”

16 Egamiz shunday demoqda:
“Men dengizni bo‘lib, yo‘l ochdim,
Bahaybat suvlar ichra so‘qmoq qildim*.
17 Jang aravalariyu otlarni,
Lashkaru jangchilarni olib chiqdim.
Ana ular yotibdilar, turmaydilar.
Pilikday miltirab, o‘chib qolganlar.

18 O‘tmishdagilarni yodga olmang,
Qadimgilarni o‘ylayvermang.
19 Mana, Men yangi bir ish qilyapman.
Shu paytning o‘zidayoq sodir bo‘lyapti! Ko‘rmayapsizmi?!
Men sahroda yo‘llar ochaman,
Ha, cho‘lda daryolar yarataman.
20 Hatto yovvoyi hayvonlar Meni ulug‘laydi,
Chiyabo‘ri, tuyaqushlar ham Meni sharaflaydi.
Zotan, tanlagan xalqimga suv beray deya,
Sahroga suvlar yubordim,
Cho‘lda daryolar yaratdim.
21 Bu xalqni O‘zim uchun yaratganman.
Ular Menga hamdu sano aytsinlar.

Isroil xalqining gunohlari

22 Sen esa, ey Yoqub nasli, Menga sajda qilmading!
Ey Isroil xalqi, sen Mendan bezor bo‘lding!
23 Sen Menga qo‘ylaringni atamading,
Ularni kuydiriladigan qurbonlik qilmading.
Meni ulug‘lash uchun qurbonliklar keltirmading.
Men nazr–qurbonliklarni sendan
Me’yoridan ko‘p talab qilmadim–ku!
Xushbo‘y tutatqilarni sendan
Ortig‘i bilan so‘ramadim–ku!
24 Sen Menga xushbo‘y qamish sotib olmading.
Qurbonliklar yog‘ini keltirmading,
Meni rozi qilmading.
Evoh, gunohlaring bilan Menga yuk bo‘lding,
Ayblaring bilan Meni charchatding.

25 O‘zimning haqi–hurmatim
Ayblaringni kechiradigan Menman.
Gunohlaringni yodga olmayman.

26 Qani, birga da’volashaylik.
Gapir! Aybsizligingni isbotla–chi!
Yodimga sol–chi!
27 Axir, eng katta bobong* gunoh qilgandi.
Payg‘ambaru ruhoniylaring Menga qarshi chiqqandi.
28 Shu bois muqaddas maskanning
Boshliqlarini harom qilaman.
Ha, Yoqub naslini halokatga,
Isroil naslini haqoratga hukm etaman.”

44–BOB

Xudo Isroil xalqini marhamatlaydi

1 Egam aytar: “Endi eshit, ey qulim Isroil!
Ey Yoqub nasli! Men seni tanlaganman.
2 Men, Egang, seni yaratganman, onang qornida senga shakl berganman.
Sening madadkoring, Men, shunday aytmoqdaman:
«Qo‘rqma, ey aziz Isroil!*
Ey Yoqub nasli, Men seni tanlaganman.
3 Chanqoq yerga Men suv beraman,
Qaqragan tuproqda irmoqlar oqizaman.
Naslingga Ruhimni beraman,
Zurriyoting ustiga O‘z barakamni yog‘diraman.
4 Ular oqar suv bo‘yidagi tol daraxti kabi,
Maysalar orasidan o‘sib chiqadi.
5 Biri: ‘Men Egamnikiman’, deb aytadi,
Boshqasi Isroil xalqiga* qo‘shilay deb keladi.
Yana biri qo‘liga ‘Egamniki’ deb yozadi–da,
Isroil xalqining biriman, deb aytadi.»”

Butparastlar ahmoqdir

6 Isroil xalqining Shohi, ularning qutqaruvchisi,
Sarvari Olam — Egamiz shunday aytmoqda:
“Birinchiyu oxirgi Men O‘zimman,
Mendan boshqa Xudo yo‘q!
7 Kim Menga o‘xshaydi? Qani, gapirsin–chi!
Qadimiy xalqni yaratganimdan beri
Nima bo‘lganlarini boshdan aytib bersin!
Kelajakda nima bo‘lishini bildirsin.
8 Vahimaga tushmang, qo‘rqmang!
Men sizlarga nima bo‘lishini
Oldindan e’lon qildim–ku!
Sizlar Mening guvohlarimsiz!
Mendan boshqa Xudo bormi?!
Yo‘q, boshqa Qoya yo‘q.
Men boshqa hech birini bilmayman!

9 But yasaydiganlarning hammasi hech narsadaydir. Xush koʻrgan butlari hech foyda
keltirmaydi. Oʻsha butlarning guvohlari koʻr, johildir. Shuning uchun ular sharmanda
boʻlib qoladi! 10 Axir, kim foydasiz xudolarning tasvirlarini yasaydi?! 11 Hali oʻsha
butparast doʻstlarning hammasi sharmanda boʻladi. But tayyorlovchilarga qarang. Ular
ham oddiy odamlar–ku! Qani, hammasi toʻplansin! Ular qoʻrquvga tushib, birgalikda
sharmandayu sharmisor boʻladi.
12 But yasaydigan temirchi asbobini oladi. Buyumni koʻmir choʻgʻi ustida qizdiradi.
Bolgʻasi bilan uni yasaydi. Qoʻlining kuchi bilan ishlaydi. Qorni ochib, holdan toyadi.
Tashnalikdan sillasi quriydi. 13 Duradgor ip bilan yogʻochni oʻlchaydi. Xohlagan shaklini
chizib olib, randa bilan ishlov beradi. Uni inson shaklida yasaydi. Unga inson chiroyini
beradi–da, sajdagohga oʻrnatadi. 14 Oʻrmonda sarv, eman daraxtlarini tanlaydi. U oʻzi
uchun sadr daraxtlaridan kesib oladi. Yoki qaragʻay daraxtini oʻtqazadi. Yomgʻir esa
oʻsha daraxtni oʻstiradi. 15 Keyin bular odamga oʻtin boʻladi. Odam yogʻochning
baʼzilarini olib isinadi. Baʼzilarini esa yoqib, non yopadi. Yana oʻziga xudo ham yasab,
unga sajda qiladi. But yasab, unga muk tushib, taʼzim qiladi! 16 U oʻtinlarning yarmini
yoqadi. Olovda goʻsht pishirib, qornini toʻydiradi. Isinib boʻlgach: «Oh, oh, isinib oldim,
olovning taftidan jonim orom olyapti», deydi. 17 Yogʻochning qolganidan esa xudosini,
oʻzining butini yasaydi. «Meni oʻzing qutqar, axir, sen mening xudoyimsan!» deb butga
ibodat qiladi, muk tushib sajda etadi.
18 Ular hech narsani bilmaydilar, tushunmaydilar. Koʻzlariyu yuraklarida toʻsiq bor,
ular koʻrmaydi, tushunmaydi. 19 Birortasi ham oʻylab koʻrmaydi. «Oʻtinning bir qismini
yoqdim. Olovida non yopdim, goʻsht pishirib yedim. Endi qolganidan jirkanch narsa
yasaymanmi?! Yogʻoch gʻoʻlasiga taʼzim qilamanmi?!» deb aytishga aql–idrok yoʻq. 20 Eh,
kul yeydiganlar! Aldangan qalbi uni adashtiradi. U oʻz jonini qutqara olmaydi.
«Qoʻlimdagi shu narsa soxta–ku!» deb oʻziga aytmaydi.

21 Ey Yoqub nasli! Ey Isroil xalqi!
Bularni yodda tut!
Sizlar Mening qulimsiz.
Men sizlarni yaratdim,
Ha, sizlar Mening qulimsiz!
Ey Isroil, Men sizlarni unutmayman!
22 Gunohlaringizni bulutday haydadim,
Ayblaringizni tumanday tarqatdim,
Sizlarni qutqarganman,
Menga qayting.”

Quddus qayta tiklanadi

23 Ey samolar, shodlikdan hayqiring!
Mana, Egamiz ajoyib bir ish qildi!
Hayqiring, ey zaminning tubsiz joylari!
Shodlikdan hayqiring, ey togʻlar,
Ey oʻrmon, oʻrmondagi har bir daraxt!
Ha, Egamiz Yoqub naslini qutqarib, Oʻziga oldi.
U Isroil xalqi orasida ulugʻlanmoqda.

24 Qutqaruvchingiz, onangiz qornida sizga shakl bergan
Egamiz shunday aytmoqda:
“Hammasini yaratgan Men Egangizman,
Yolg‘iz O‘zim samolarni yoyganman!*
Bir O‘zim zaminni yaratganman!
25 Folbinlarning alomatlarini behudaga chiqaraman,
Bashoratgo‘ylarni laqillataman,
Donishmandlarga zarba berib,
Bilgan narsalarini nodonlikka chiqaraman.
26 O‘z qulimning bashoratini ijro etaman,
Elchilarimning aytganlarini qilaman.
Men Quddus haqida:
«Bu yerda yana inson yashaydi», deb aytmoqdaman.
Yahudo shaharlari haqida:
«Ular qaytadan quriladi,
Vayronalarini tiklayman», deb aytmoqdaman.
27 Chuqur suvlarga shunday deyman:
«Qurib bit! Daryolaringni quritaman.»
28 Shoh Kurush* haqida shunday deyman:
«U Mening cho‘ponim.
Mening barcha xohishimni u bajaradi.»
Kurush shunday deydi:
«Quddus qayta qurilsin,
Ma’bad yana tiklansin.»”

45–BOB

Shoh Kurush — Egamizning tanlagani

1 Egam aytar: “Men shoh Kurushni* o‘ng qo‘lidan tutib turibman.
Xalqlarni unga itoat ettiray deya,
Shohlarni qurolsizlantiraman.
Uning oldida eshiklar ochiq turadi,
Darvozalar yopilmaydi.”
Egamiz O‘zining tanlagani — Kurushga shunday aytmoqda:
2 “Men O‘zim Sening oldingda boraman,
Tog‘larni* tekislikka aylantiraman,
Bronza eshiklarni parchalayman,
Temir tambalarni sindiraman.
3 Men Egang ekanligimni bilib olgin,
Sening ismingni aytib chaqirayotgan Men
Isroil xalqining Xudosi ekanligimni anglagin deb,
Yashirib qo‘yilgan boyliklarni,
Zulmatdagi xazinani senga beraman.
4 Qulim Yoqub haqi,

O‘zim tanlagan Isroil haqi,
Sening ismingni aytib chaqirdim.
Senga nom ato qildim,
Ammo sen Meni bilmaysan.
5 Men Egangman, boshqasi yo‘q,
Mendan o‘zga xudo yo‘q!
Senga madad beraman,
Ammo Meni bilmaysan.
6 Mendan boshqasi yo‘qligini
Sharqu g‘arbda hamma bilsin, dedim.
Men Egangman, boshqasi yo‘q!
7 Men yorug‘lik yarataman, zulmat bino qilaman,
Farovonlik yuboraman, kulfat yog‘diraman.
Men Egangman!
Bularning hammasini Men qilaman!

8 Ey samolar, yuqoridan solihlik yog‘diring,
Ha, solihlik bulutlardan quyilsin.
Yerdan najot unib chiqsin,
Solihlik bilan birga yashnasin.
Men Egangizman! Men uni yaratganman.”

9 Holingizga voy!
Ey Yaratuvchi bilan bahslashadiganlar!
Tuproqdan yasalgan ko‘zayu xumlar!
Axir, loy kulolga: “Nima qilyapsan?” deydimi?!
“Qo‘lingdan ish kelmas ekan!” deb aytadimi?!
10 Tug‘ilmagan homila otasiga:
“Nima tug‘diryapsiz o‘zi?” deb aytadimi?!
Onasiga: “Nimaga meni tug‘yapsiz o‘zi?” deydimi?!
Sizlarning holingizga voy!
11 Isroil xalqining Muqaddas Xudosi,
Uning Yaratuvchisi — Egamiz shunday aytmoqda:
“Xo‘sh, endi O‘z farzandlarimning
Taqdiri haqida Meni so‘roqqa tutasizmi?!
O‘z qo‘llarim ijodi to‘g‘risida
Menga ko‘rsatmalar berasizmi?!
12 Zaminni barpo qilgan,
Yer yuzida insonni yaratgan Menman.
Men O‘z qo‘lim bilan osmonni yoydim,
Barcha samoviy jismlarga Men buyruq berdim.
13 Men O‘zim Kurushni qo‘zg‘atib,
Unga g‘alaba beraman.
Uning barcha yo‘llarini tekislayman.
U Mening shahrimni quradi.

Porayu mukofot olmasdan
Mening asirlarimni qo‘yib yuboradi.”
Sarvari Olam shunday dedi.

Egamiz tanho Xudo va najotkordir

14 Egamiz aytmoqda: “Misrning boyliklari,
Habashistonning* xazinalari seniki bo‘ladi!
Savo yurtining* baland bo‘yli odamlari senga keladi.
Ular senga ergashadi.
Zanjirband bo‘lib, senga ta’zim qiladi.
Yolvorib: «Ha, Xudo sizning orangizda!
Undan boshqa Xudo yo‘q!» deydi.”

15 Ey Isroil xalqining Xudosi — qutqaruvchi!
Haqiqatan ham, Sen O‘zini yashiradigan Xudosan.
16 But yasaydiganlar birgalikda uyatga qoldi.
Hammasi sharmandayu sharmisor bo‘ldi.
17 Isroilni esa Egamiz qutqardi,
To abad najot berdi!
Ey Isroil xalqi, sizlar sharmanda bo‘lmaysiz,
To abad uyatga qolmaysiz!

18 Egamiz Samolarni yaratgan,
U Xudodir!
U yerni barpo qilgan, mustahkamlagan.
Yerni bo‘sh qilib emas,
Yashashga loyiq qilib yaratgan.
U shunday deb aytmoqda:
“Men Egangizman, boshqasi yo‘q.
19 Men sizlarga yashirin joyda,
Zimziyo yurtda gapirmadim.
Men Yoqub nasliga: «Bo‘sh joylardan
Meni qidiring!» deb aytmadim.
Men Egangizman.
Haqiqatni aytaman,
To‘g‘risini e’lon qilaman.

20 Ey xalqlarning omon qolganlari,
Yig‘ilinglar, yaqinlashib, birga kelinglar!
Yog‘och butlarini olib yuradiganlar,
Qutqarmaydigan xudoga ibodat qiladiganlar
Hech narsani anglab yetmaydilar.
21 Gapiring, isbot keltiring.
O‘zaro maslahatlashing.
Bu to‘g‘rida kim qadimdan xabar berdi?
Azaldan kim aytib bergan edi?

Men Egangiz emasmi?!
Mendan boshqa Xudo yoʻq!
Men odil Xudoman, qutqaruvchiman!
Mendan boshqasi yoʻq.
22 Menga yuz buring, najot topasiz,
Ey zaminning barcha chetlari!
Ha, Men Xudoman, boshqasi yoʻq.
23 Oʻzim haqim ont ichdim*,
Ogʻzimdan toʻgʻri soʻz chiqdi, behuda ketmas:
Mening oldimda har bir odam tiz choʻkadi,
Har bir til Menga sadoqat qasamini ichadi.
24 Men haqimda: «Faqatgina Egamizda adolat, qudrat bor», deb aytadilar.
Mendan gʻazablanganlarning hammasi
Menga keladilar, ular uyalib qoladilar.
25 Ammo butun Isroil nasli
Men — Egasi tufayli najot topadi.
Ular maqtovga sazovor boʻladi.”

46–BOB

1 Egam aytar: “Xudo Bel tiz choʻkdi, xudo Navo* bukildi.
Ularning butlari molu hayvonga yuk boʻldi.
Oldin koʻtarib yurganlaringiz
Endi toliqqanga yuk boʻldi.
2 Ular egildi, birga tiz choʻkdi,
Ular endi yukni qutqara olmaydi,
Oʻzlari esa asir boʻlib ketadi.

3 Ey Yoqub nasli! Menga quloq soling!
Ey Isroil naslining omon qolganlari!
Ey xalqim! Tugʻilganingdan beri seni onaday koʻtarib yurdim,
Ha, dunyoga kelmasingdan oldin Men tayanching boʻldim.
4 Keksayguningcha ham Men Oʻshaman,
Soching oqarganda ham seni koʻtarib yuraman.
Men seni yaratganman, Oʻzim seni koʻtaraman.
Oʻzim seni koʻtarib, qutqaraman.

5 Meni kimga oʻxshatasan?!
Kimga tenglashtirasan?!
Meni kimga taqqoslaysan?!
Nima, Men oʻshalar bilan teng boʻlib qoldimmi?!
6 Mana, odamlar hamyondan tilla chiqaradilar.
Kumushni tarozilarda tortadilar.
Usta yollab, xudo yasattiradilar.
Ular oʻsha xudosiga ta’zim qiladilar.
Ha, unga sajda qiladilar.

7 O‘sha xudosini opichlab olib ketadilar,
Uni joyiga o‘rnatib, turg‘izib qo‘yadilar.
U joyidan qimirlamay turaveradi.
Kimdir unga yolvorganda, javob bermaydi,
Mashaqqatidan xalos qila olmaydi.

8 Buni yodda tuting, mahkam bo‘ling!
Ey isyonkorlar, buni esga olib turing!
9 Azaldan bo‘lganlarni yodda tuting!
Axir, Men Xudoman, boshqasi yo‘q!
Men Xudoman, Menga o‘xshagani yo‘q!
10 Oxirida nima bo‘lishini boshidayoq aytaman.
Sodir bo‘lmaganlarni oldindan bildiraman.
«Niyatlarim bajo bo‘ladi,
Barcha istaklarimni ijro etaman», deb aytmoqdaman.
11 Sharqdan yirtqich qushni chaqiryapman.
Ha, xohishimni bajaradiganni
Uzoq yurtdan chaqiryapman*.
Men O‘z aytganimni bajo qilaman!
Ha, o‘ylaganimni amalga oshiraman!

12 Menga quloq soling, ey o‘jarlar!
G‘alaba uzoq, deb o‘ylaganlar!
13 Mana, Men g‘alaba keltiraman, u uzoqda emas.
Kechiktirmay najot beraman.
Ha, Quddusga* najot ato qilaman,
Isroilga O‘z ulug‘vorligimni beraman.”

47–BOB

Go‘zal ayolga o‘xshagan Bobil hukm qilinadi

1 Egam aytar: “Pastga tush, tuproqqa o‘tir,
Ey bokira qiz* Bobil!
Yerga o‘tir, endi taxting yo‘q,
Ey qiz Bobil!*
Mana endi sen to‘g‘ringda:
«Naqadar nozik, mayindir», deb aytmaslar.
2 Qani, tegirmon toshini ol, don yanchgin.
Yopinchig‘ingni yech, etagingni yig‘ishtir,
Boldiringni och, daryolardan kechib o‘t*.
3 Yalang‘och joylaring ochiladi,
Sharmandaliging ko‘rinib qoladi.
Men qasos olaman,
Hech kimga shafqat qilmayman.”

4 Qutqaruvchimiz Isroil xalqining Muqaddas Xudosidir.

Uning nomi Sarvari Olamdir.

5 Egam aytar: “Jim o‘tir, qiz Bobil!* Zulmatga jo‘na!
Endi seni «Yurtlarning malikasi» deb aytmaydilar.
6 Men xalqimdan g‘azablandim,
O‘z mulkimni harom qildim.
Ularni sening qo‘lingga berdim.
Sen esa ularga shafqat qilmading,
Hatto keksalarning yelkasiga ham
G‘oyat og‘ir bo‘yinturuq solding.
7 Shunda: «Men to abad olamning malikasi bo‘laman», deb aytding.
Ammo bularning nima bilan tugashini
O‘ylab ko‘rmading, aqlingga keltirmading.

8 Endi bunga quloq sol! Ey hashamatni sevuvchi!
Bexatar o‘tirib, o‘zingcha aytasan:
«Mendan boshqa malika yo‘q,
Tul qolmasman, farzand dog‘ini ko‘rmasman.»
9 Ko‘p sehr–jodularingga qaramay,
Kuchli afsunlaringga qaramay,
Mana shu ikkalasi ham
Bir kunda boshingga tushadi:
Sen hamma bolalaringdan ayrilasan,
Tul bo‘lib qolasan.

10 O‘z yovuzligingga ishonding,
«Meni hech kim ko‘rmaydi», deding.
Donoliging, biliming seni yo‘ldan adashtirdi,
O‘zingga: «Mana, men!
Mendan boshqasi yo‘q», deding.
11 Mana, boshingga kulfat tushadi,
Uni sehr–jodu bilan daf qilolmaysan.
Boshingga baxtsizlik yog‘iladi,
Sen uni qaytara olmaysan.
Halokat senga birdaniga keladi,
Bu tushingga ham kirmagan.

12 Qani, sehr–joduingni ishga sol,
Ko‘proq afsungarlik qil,
Axir, sen yoshligingdan
Bunday ishlarga odatlangansan.
Balki biron narsaga erisharsan,
Balki birontasini qo‘rqitarsan.
13 Olgan maslahatlaring ko‘pligidan
Sen charchab qolding.
Qani, endi o‘sha munajjimlaring, ta’birchilaring?

Har yangi oy chiqqanda taqdiringdan bashorat qiladiganlar qani?
Ular kelsin–chi!
Endi o‘shalar seni qutqarsin.

14 Ana, hammalari somonga o‘xshab qoldi–ku!
Olov ularni yamlamay yutadi!
Jonlarini olovdan qutqarolmaydi.
Isinish uchun ko‘mirlari bo‘lmaydi.
Taftidan bahra olish uchun gulxani bo‘lmaydi*.
15 Yoshligingdan sen bilan oldi–berdi qilgan har bir odam,
Sen bilan birga ishlaganlarning hammasi shunday bo‘lib qoladi.
Ular o‘z yo‘liga qarab ketadi!
Seni qutqaradigan biror kimsa bo‘lmaydi.”

48–BOB

Xudoning isyonkor xalqi

1 Eshiting buni! Ey Yoqub nasli!
Ey Isroil nomi bilan ataladiganlar,
Yahudo urug‘idan chiqqanlar!
Sizlar Egamizning nomi bilan qasam ichasizlar,
Isroil xalqining Xudosini tilga olasizlar,
Ammo haqiqat va solihlik bilan emas.
2 Ha, sizlar o‘zingizni muqaddas shahar* nomi ila atadingiz,
Isroil xalqining Xudosiga tayandingiz,
Axir, Uning nomi Sarvari Olamdir.

3 Egamiz sizlarga shunday dedi:
“Bo‘lib o‘tganlarni oldindan Men aytdim,
Og‘zimdan chiqishi bilan bularni bildirdim,
Birdaniga harakat qildim va ular sodir bo‘ldi.
4 Axir, qaysarligingni Men bilaman–ku!
Bo‘yning temirday, peshanang bronzaday qattiq!
5 «Bularni mening sanamim qildi,
Quyma, o‘yma butlarim amr qildi», deb
Aytmagin, deya Men oldindan aytdim,
Bajo bo‘lmasdan oldin, bo‘lib o‘tganlarni bildirdim.
6 Bularning hammasini eshitding,
Nahotki endi e’tirof etmasang?!
Hozirdan boshlab yangilarini,
O‘zing bilmagan yashirin narsalarni
Senga eshittirdim.
7 Bular hozir yaratildi, qadimda emas,
Bu to‘g‘rida sen ilgari eshitmagansan.
Yo‘q! Sen: «Men bularni bilaman–ku!»

— deb ayta olmaysan.
8 Ha, eshitmagansan, bilmaysan ham,
Hatto azaldan ham quloqlaring ochilmagandi.
Men bilaman–ku xiyonatkor ekanligingni,
Tug‘ilganingdanoq sen isyonkor deb atalgansan.
9 O‘zimning ismim haqi g‘azabimni bosyapman,
Sharafim haqi O‘zimni tutyapman,
Bo‘lmasa, seni yo‘q qilgan bo‘lardim.
10 Mana, Men seni pokladim,
Ammo kumushday qilib emas.
Seni kulfat o‘chog‘ida sinadim.
11 O‘z haqim, ha, O‘z haqim uchun shunday qilaman!
Axir, nimaga Men badnom bo‘lishim kerak?!
Shuhratimni birovga berib qo‘ymayman.

Isroil Bobil zulmidan xalos bo‘ladi

12 Menga quloq tut, ey Yoqub nasli!
O‘zim chaqirgan Isroil xalqi, eshit!
Men O‘shaman!
Boshi ham, oxiri ham Men O‘zimman.
13 Ha, Mening qo‘lim zaminning poydevorini* qo‘ygan,
Samolarni yoygan Mening qo‘limdir.
Men ularni chaqirganimda
Ular birgalikda turadi.
14 Hammangiz to‘planib, eshiting!
Butlarning qaysisi bularni bildirdi?!
Kurushni* Men, Egangiz, yaxshi ko‘raman.
U Bobilda Mening niyatimni bajo keltiradi.
Mening qo‘lim Bobilliklarga* qarshi bo‘ladi.
15 Men aytdim! Ha, Men O‘zim aytdim!
Uni Men chaqirganman!
Uni Men olib keldim,
U g‘alabaga erishadi.
16 Menga yaqinlashing! Bunga quloq soling!
Azaldan hech narsani yashirmay aytdim,
Boshidanoq Men o‘sha yerdaman.”

Mana endi Egamiz Rabbiy meni
Hamda O‘z Ruhini yubormoqda*.
17 Qutqaruvchingiz, Isroil xalqining Muqaddas Xudosi —
Egamiz shunday aytmoqda:
“Men Egangiz Xudoman!
Yaxshi bo‘ling deb, sizlarga yo‘l–yo‘riq ko‘rsataman,
Yuradigan yo‘llaringizdan yetaklayman.
18 Qaniydi amrlarimga quloq solganingizda!
O‘shanda farovonligingiz daryoday bo‘lardi,

Zafaringiz dengiz to‘lqinlariday bo‘lardi.
19 Urug‘ingiz qum kabi bo‘lardi,
Naslingiz qum zarralariday son–sanoqsiz bo‘lardi.
Ularning nomi o‘chib ketmagan bo‘lardi,
Mening oldimdan yo‘qotilmagan bo‘lardi.”

20 Endi Bobildan chiqib keting,
Bobilliklardan qoching.
Shodlik hayqiriqlari ila e’lon qiling!
Dunyoning to‘rt chetiga bu xabarni yetkazing!
“Egamiz O‘z qullari, Yoqub naslini qutqardi”, deb ayting!
21 Egamiz ularni sahrodan olib borganda,
Ular tashnalikdan qiynalmadilar.
Xudo ular uchun qoyadan suv chiqardi*.
U qoyani yordi, suvlar pishqirib chiqdi.

22 “Yovuzlarga omonlik yo‘q”, deydi Egamiz.

49–BOB

Isroil boshqa xalqlarga chiroq bo‘ladi

1 Quloq soling, ey dengiz ortidagi yurtlar!
E’tibor bering, ey uzoqdagi xalqlar!
Tug‘ilmasimdan oldin Egam meni chaqirdi,
Ona qornida bo‘lganimdayoq
U ismimni aytib chaqirdi.
2 U tilimni o‘tkir qilichday qildi,
Qo‘lining soyasida U meni yashirdi.
U meni uchli o‘qday qildi,
O‘qdoniga meni yashirdi.
3 U menga shunday dedi:
“Sen Mening qulimsan,
Ey Isroil, Men sen tufayli shuhrat topaman.”
4 Men shunday dedim:
“Men bekorga mehnat qildim,
Kuchimni behuda, befoyda sarf etdim.”
Ammo Egam meni hukm qiladi–ku,
Mukofotlash Xudoyimning qo‘lidadir.

5 Endi Egam gapirdi.
Yoqub naslini Unga qaytarsin deb,
Isroilni Uning oldiga to‘plasin deb,
Onam qornidayoq meni O‘z quli qilib yaratdi.
Egamning ko‘zi oldida men shuhrat topaman,
Xudoyim mening kuch–qudratim bo‘ldi.
6 U shunday dedi:

“Ha, sen Yoqub qabilalarini qayta tiklaysan,
Isroilning omon qolganlarini
O‘z yurtiga qaytarib olib kelasan.
Biroq seni faqat shuning uchungina qulim qilmadim.
Men seni boshqa xalqlarga nur qilaman,
Toki Men beradigan najot yerning chetigacha yetib borsin.”

7 Isroil xalqining qutqaruvchisi,
Ularning Muqaddas Xudosi —
Egamiz shunday aytmoqda:
“Ey xoru zor bo‘lgan bechora qulim,
Sen xalqlarning* nafratiga uchragansan,
Hukmdorlarning quliga aylangansan.
Biroq senga aytamanki,
Seni ko‘rib, shohlar o‘rnidan turadi,
Hukmdorlar tiz cho‘kib ta’zim qiladi.
Isroil xalqining Muqaddas Xudosi —
Sodiq Egangiz haqi–hurmati shunday qiladi.
Axir, U seni tanlagan–ku!”

Isroil qayta tiklanadi

8 Egamiz shunday aytmoqda:
“Muruvvat payti kelganda,
Men senga javob berdim,
Najot kuni kelganda,
Men senga yordam berdim.
O‘zim seni himoya qilaman,
Xalqim bilan tuzgan ahdimni
Sen orqali amalga oshiraman.
Toki yurt qayta tiklansin,
Tashlandiq mulklar taqsimlansin.
9 Mahbuslarga: «Chiqinglar!» demoqdaman.
Zulmatdagilarga: «Ko‘rininglar!» deb aytmoqdaman.
Yo‘l bo‘yida ular o‘tloqlar topadi,
Tap–taqir qirlar ularning yaylovi bo‘ladi.
10 Ular na ochlikni, na tashnalikni biladi,
Na garmsel*, na jazirama quyoshdan azob chekadi.
Mehr–shafqat ko‘rsatib, ularni yetaklayman,
Ularni buloqlarga boshlab boraman.
11 Hamma tepaliklarimni tekis yo‘l qilaman,
Jarliklarni to‘ldirib, yo‘llar barpo etaman.
12 Mana, ular uzoqlardan keladi.
Qarang, ular shimoldan, g‘arbdan,
Sinim yurtidan* ham keladi.”

13 Shodlikdan kuylang, ey samolar,

Xursand bo‘l, ey zamin!
Qo‘shiqqa jo‘r bo‘ling, ey tog‘lar!
Egamiz xalqiga tasalli berdi,
Ezilgan xalqiga rahm qildi!

14 Ammo Quddus* shunday dedi:
“Egam meni tark etdi,
Rabbim meni unutib qo‘ydi.”
15 Egam aytar: “Axir, ayol kishi emizikli bolasini unutadimi?!
O‘zi tuqqan bolasiga rahm qilmaydimi?!
Agar xotinlar bolasini unutsalar ham,
Men seni aslo unutmayman!
16 Qara, sening nomingni kaftimga yozib qo‘ydim,
Ey Quddus, doimo ko‘z o‘ngimdasan!
17 Hademay, farzandlaring qaytib keladi,
Seni vayron qilib, yo‘qotmoqchi bo‘lganlar
Sendan chiqib ketadi.
18 Boshingni ko‘tarib, atrofga qara,
Hamma farzandlaring to‘planib, oldingga kelishdi.”
Egamiz shunday demoqda:
“Men barhayot Xudo bo‘lganim haqi aytamanki,
Hammasi zebu ziynatday seni bezatib turadi,
Kelinchakday ularni taqinchoq qilib taqasan.
19 Ha, yering kimsasiz, huvullab qolgandi,
Yurting vayronaga aylangandi.
Endi esa odam ko‘pligidan tor bo‘lib qoladi,
Buzg‘unchilar sendan uzoqda yuradi.
20 Asirlikda tug‘ilgan farzandlaring
Hali senga shunday deydi:
«Bu joy bizga torlik qilyapti,
Joy bering, biz ham yashaylik.»
21 Shunda o‘zingga o‘zing deysan:
«Ularni menga kim tug‘ib berdi?
Farzandsiz edim, tug‘mas bo‘lib qolgandim.
Surgunda edim, xor bo‘lgandim.
Ularni kim menga katta qilib berdi?
Yolg‘iz o‘zim qolgandim–ku,
Endi ular qayerdan kelib qoldi?»”

22 Egamiz Rabbiy shunday aytmoqda:
“Mana, Men xalqlarga qo‘l ko‘tarib, ishora beraman,
Elatlarga bayrog‘imni ko‘taraman.
Bolalaringni ular qo‘llarida ko‘tarib keladi,
Qizlaringni ular opichlab keladi.
23 Shohlar senga xizmat qilib, boqadi,

Malikalar senga enagalik qiladi.
Boshlari yerga tekkuday bo‘lib,
Ular senga ta’zim qiladi,
Oyoqlaring changini yalab–yulqaydi.
O‘shanda Men Egang ekanligimni bilasan.
Menga umid bog‘lagan sharmanda bo‘lmaydi.”

24 Biror kimsa kuchli jangchidan
O‘ljani olib qo‘ya oladimi?!
Nahotki zolimning* qo‘liga asir tushgan qutula olsa?!
25 Egamiz esa shunday aytmoqda:
“Mana, kuchli jangchidan asirlar tortib olinadi,
Zolimga o‘lja bo‘lganlar qutqariladi!
Senga qarshi chiqqanlarga Men qarshi chiqaman,
Sening bolalaringni Men O‘zim qutqaraman!
26 Senga zulm qilganlarga o‘z tanasini yediraman,
Ular sharob ichganday bo‘lib, o‘z qonidan mast bo‘ladi.
Shunda jamiki odamzod
Men, Egang, najotkoring va qutqaruvching ekanligimni,
Yoqub naslining qudratli Xudosi ekanligimni bilib oladi.”

50–BOB

Isroil xalqining gunohi

1 Egamiz shunday aytmoqda:
“Men onangizni haydab yuborgan edim,
Uning taloq xati qani?
Xo‘sh, sizni qaysi qarz beruvchimga sotibman?
Mana, gunohlaringiz tufayli sotildingiz,
Itoatsizligingiz dastidan onangiz haydaldi.
2 Kelganimda nega biron kimsa yo‘q edi?
Chaqirganimda nega hech kim javob bermadi?
Sizni qutqarishga Mening qo‘lim qisqami?
Yoki sizni ozod qilishga kuchim yetmasmi?
Bir tahdid qilsam dengiz quriydi,
Daryolarni cho‘lga aylantiraman.
Suvlar qurib, baliqlari sasiydi,
Suv yo‘qligidan baliqlar o‘lib ketadi.
3 Samolarga qora kiydiraman,
Qanorni ularning yopinchig‘i qilaman.”

Egamizning itoatkor quli

4 Toliqqanlarga so‘z bilan madad bersin deb,
Egam Rabbiy menga dono til berdi.
Har tong U meni uyg‘otadi,
Donolarday tinglasin deb, qulog‘imni ochadi.

5 Egam Rabbiy qulog‘imni ochdi,
Men itoatsizlik qilmadim,
Men Undan yuz o‘girib ketmadim.
6 Meni urganlarga kiftimni ochdim,
Soqolimni yulganlarga yuzimni tutdim,
Haqorat, tupurishlardan yuzimni yashirmadim.
7 Egam Rabbiy menga madad beradi,
Shu bois men hech sharmanda bo‘lmadim.
Azoblarga bardosh berishga qaror qildim,
Bilaman, sharmanda bo‘lmayman.
8 Meni oqlaydigan yaqinimdadir,
Men bilan da’volashadigan kim, yuzlashaylik–chi!
Qani raqiblarim? Menga qarshi chiqsin!
9 Mana, Egam Rabbiy menga madad beradi,
Qani, kim meni aybdor deb ayta oladi?!
Qarang, ularning hammasi kiyim kabi eskiradi,
Ularni kuya yeb tamom qiladi.

10 Orangizdan kim Egamizdan qo‘rqadi?
Kim qulining ovoziga quloq soladi?
Zulmatda yurganlar, nurdan mahrum bo‘lganlar
Egamizning nomiga umid bog‘lasin,
Ha, o‘zining Xudosiga tayansin!
11 Axir, hammangiz alanga yoqyapsiz,
Mash’allar yoqyapsiz.
Alangangiz yorug‘ida yuravering,
O‘zingiz yoqqan mash’ala yorug‘ida yuravering.
Qarang, Xudo sizlarni ne ko‘yga soladi:
U boshingizga azob–uqubat keltiradi.

51–BOB

Xudo O‘z xalqiga tasalli beradi

1 Egam aytar: “Ey najotga umid bog‘laganlar,
Men, Egangizga intilayotganlar,
Menga quloq soling!
Qayerdan kelib chiqqaningizga e’tibor bering:
Qoyangizga qarang, siz undan kesib olingansiz,
Koningizga qarang, siz undan qazib olingansiz.
2 Ha, otangiz Ibrohimga boqing,
Sizni tuqqan Soraga qarang.
Ibrohimni chaqirganimda, u yolg‘iz edi,
Men unga baraka berib, ko‘paytirdim.

3 Mana, Men, Egangiz, Quddusga* tasalli beraman,

Uning barcha vayronalariga tasalli beraman.
Uning sahrosini Adan bog‘iga aylantiraman,
Uning cho‘lini Mening bog‘imday qilaman.
U yerda shodlik, sevinch bo‘ladi,
Shukronalik va qo‘shiq sadolari yangraydi.

4 Ey xalqim! Menga quloq soling!
Quloq tuting Menga, ey elatim!
Mana, ta’limot Mendan chiqib boradi,
Adolatim xalqlarga nur bo‘ladi.
5 Men beradigan najot o‘z yo‘liga chiqdi,
Men g‘alaba qozonadigan vaqt yaqinlashdi.
Xalqlar orasida qo‘lim ila adolat o‘rnataman,
Dengiz ortidagi yurtlar Menga umid bog‘laydi,
Bilagimning kuchidan ular umid qiladi.
6 Ko‘zlaringizni samolarga qarating,
Pastga, yer yuziga nazar soling.
Samolar tutun kabi yo‘qoladi,
Zamin kiyim kabi to‘zib bitadi.
Zamin ahli chivinday o‘lib ketadi,
Men beradigan najot esa to abad bo‘ladi,
Mening g‘alabam bekor qilinmaydi.

7 Ey ta’limotimni qalbiga jo qilganlar,
Sizlar nima to‘g‘ri ekanligini bilasizlar.
Menga quloq soling!
Inson haqoratlaridan qo‘rqmanglar,
Ularning tahqirlaridan xafa bo‘lmanglar.
8 Kuya kiyimni, qurt junni yeb bitirganday,
Ular ham yo‘q bo‘lib ketadi.
Mening g‘alabam esa abadiy bo‘ladi,
Najotim nasllar bo‘yi davom etadi.”

9 Uyg‘on, uyg‘on, ey Egam!
Kuch–qudratingga burkangin!
Uyg‘on qadimgi paytlardagiday,
Azaliy nasllar davridagiday.
Maxluq Rahobni* parchalagan Sen emasmiding?!
Ajdarga tig‘ sanchgan Sen emasmiding?!
10 Sen emasmiding dengizni quritgan,
G‘oyat tubsizlikdagi suvlarni quritgan?!
O‘zingga tegishli bo‘lganlar o‘tsin deb,
Dengiz tubini yo‘l qilgan Sen emasmiding?!
11 Egamiz qutqarganlar qaytib keladi,
Qo‘shiq aytib Quddusga keladi.

Abadiy shodlik ularning boshida toj boʻladi.
Ular shodlik, sevinchga yetishadi,
Qaygʻu, nadomat ulardan uzoqqa qochadi.

12 Egam aytar: “Men Oʻzim sizlarni yupataman!
Kimdan qoʻrqasiz? Oʻladigan bandadanmi?
Maysaga oʻxshab soʻliydigan inson zotidanmi?!
13 Samolarni yoygan*, zamin poydevorini* oʻrnatgan,
Sizlarni yaratgan Men, Egangizni unutib qoʻydingiz.
Sizni qirmoqchi boʻlgan zolimning gʻazabidan
Har doim titrab–qaqshab turasiz.
Ammo qani endi zolimning gʻazabi?!
14 Mazlumlar tez orada ozod boʻladi,
Ular oʻlmaydi, qabrga tushmaydi,
Nonga zor boʻlmaydi.
15 Men Egangiz Xudoman.
Dengizni qoʻzgʻatadigan,
Toʻlqinlarni guvullatadigan Menman.
Mening nomim Sarvari Olamdir!
16 Ogʻzingizga soʻzlarimni soldim,
Sizlarni qoʻlim soyasida yashirdim.
Samolarni oʻrnatganman,
Zamin poydevorini qoʻyganman.
Quddusga: «Sen Mening xalqimsan», deganman.”

Quddusning azoblari tugaydi

17 Uygʻon, uygʻon ey Quddus, oyoqqa tur!
Sen Egangning qoʻlidagi gʻazab kosasidan* ichding!
Tagidagi quyqumigacha ichib,
Gandiraklab qolding.
18 Oʻzing tuqqan shuncha oʻgʻillar orasidan
Seni yetaklaydigan birontasi ham yoʻq.
Oʻzing oʻstirgan shuncha oʻgʻillar orasidan
Qoʻlingdan tutadigan birontasi yoʻq.
19 Boshingga qoʻsh falokat keldi,
Kim senga tasalli beradi?!
Atrofingda talonchiligu halokat, ochligu qilich,
Kim seni yupata oladi?!*
20 Har bir koʻcha boshida
Oʻgʻillaring sulayib yotibdi.
Ular toʻrga tushgan kiyiklar kabidir.
Egangiz bor qahr–gʻazabiyu Oʻz tanbehi bilan
Ularni shu ahvolga soldi.

21 Shu bois endi bunga quloq soling,
Ey azob chekkanlar!

Sizlar mastsiz, ammo sharobdan emas!
22 O‘z xalqini himoya qiladigan Xudoyingiz —
Egangiz Rabbiy shunday aytmoqda:
“Mana, sening qo‘lingdan
Gandiraklatadigan kosani oldim.
Endi g‘azabim kosasidan boshqa ichmaysan.
23 Uni senga azob berganlarning qo‘liga beraman.
Ular senga: «Yerga yot, ustingdan
Bosib o‘taylik», degan edi.
Yelkalaring ularga yer kabi bo‘ldi.
Sen o‘zing yo‘lday bo‘lding,
Ular ustingdan bosib o‘tdi.”

52–BOB

Xudo Quddusni qutqaradi

1 Uyg‘on, uyg‘on, ey Quddus,
Kuch–qudratga to‘lgin.
Ajoyib kiyimlaringni kiygin,
Ey Sion, muqaddas shahar!
Mana endi sunnatsizlar, nopoklar
Darvozalaringdan ichkari kirmaydi!
2 Qani, tur, tuproqni qoqib tashla!
Ey Quddus, o‘z taxtingga o‘tir!
Bo‘yningdagi zanjirni uzib tashla,
Ey asira qiz* Sion!

3 Mana Egamiz shunday demoqda: “Sizlar bepul sotilgan edingiz, endi pulsiz qutqarilasiz.” 4 Ha, Egamiz Rabbiy shunday demoqda: “Oldin xalqim Misrga bordi. U yerda musofir bo‘ldi. Keyin Ossuriyaliklar sababsiz ularga zulm o‘tkazdi. 5 Bu nimasi? — demoqda Egamiz. — Xalqim behudaga bosib olindi. Hukmdorlari faryod qilmoqda, — demoqda Egamiz. — Mening nomim doimo, kun bo‘yi haqorat qilinmoqda. 6 Shu bois xalqim nomimni bilib oladi. Ha, Men gapirayotganimni o‘sha kuni ular bilib oladi. Mana, Men O‘shaman.”

7 Tog‘lar osha tinchlikni e’lon qilgan
Xabarchining qadamlari naqadar go‘zal!
U xushxabar olib kelmoqda,
U najotni e’lon qilmoqda,
U Quddusga*: “Xudoying hukmrondir”, demoqda.
8 Quloq soling! Soqchilaringiz ovozini ko‘tarmoqda,
Birgalikda ular shodlikdan kuylamoqda!
Axir, Egamizning Quddusga qaytib kelishini
Ular o‘z ko‘zlari bilan ko‘radi.
9 Ey Quddus vayronalari!

Birgalikda sevinch ila hayqiring.
Egamiz O‘z xalqiga tasalli berdi,
Quddusni qutqarib, O‘ziga oldi!
10 Hamma xalqlarning ko‘z o‘ngida
Egamiz muqaddas qo‘lini ko‘rsatdi.
Xudoyimizning najotini
Yerning to‘rt burchi ko‘radi.

11 Keting, u yerdan chiqib keting!
Harom bo‘lganlarga tegib ketmang!
Ey Egamizning muqaddas ashyolarini ko‘taradiganlar*,
U yerdan chiqinglar, poklaninglar!
12 Mana, siz shoshilmay yo‘lga chiqasiz,
Qochishingizga aslo hojat qolmaydi.
Axir, Egamiz oldingizda bormoqda,
Isroil xalqining Xudosi ortingizdan
Sizni qo‘riqlamoqda.

Egamizning azoblanayotgan quli

13 Egam aytar: “Mana, Mening qulim yashnaydi,
U ko‘tarilib, yuksaladi,
G‘oyat balandga ko‘tariladi.
14 Ilgari uning qiyofasi shunday badbashara ediki,
Inson zotiga o‘xshash joyi qolmagan edi.
Shu bois ko‘plar uning oldida* dahshatga tushdi,
15 Endi esa u ko‘p xalqlarni hayratda qoldiradi,
Uni deb shohlar ham lol bo‘lib qoladi.
Axir, ular bilmagan narsalarni ko‘radilar,
Eshitmaganlarini anglab yetadilar.”

53–BOB

1 Bizning* xabarimizga kim ishondi?
Egamizning qudratli kuchi kimga ayon bo‘ldi?
2 Egamizning quli Egamiz oldida yangi ko‘chatday,
Quruq tuproqdagi ildizday o‘sdi.
Bizni o‘ziga jalb qiladigan
Go‘zallik, ulug‘vorlik unda yo‘q edi.
Bizni o‘ziga rom etadigan
Hech bir jozibasi yo‘q edi.
3 Odamlar undan nafratlandilar, uni rad etdilar.
U qayg‘u, azob–uqubat nimaligini bilardi.
Hamma undan yuz o‘girdi, undan hazar qildi.
Biz uni odam qatorida sanamadik.
4 Ha, dardlarimizni u o‘ziga oldi,
Og‘riqlarimizni u o‘z zimmasiga oldi.

Biz esa oʻyladik: “Uni Xudo urgan,
Alamdiyda, jabrlangan u!”
5 U esa bizning gunohlarimizni deb yarador boʻldi,
Bizning ayblarimiz tufayli ezildi.
Bizga tinchlik keltiradigan jazo unga tushdi,
Uning yaralari bizga shifo berdi.
6 Hammamiz qoʻylarday yoʻldan adashdik,
Hammamiz oʻz yoʻlimizdan ketdik.
Hammamizning ayblarimizni
Egamiz uning zimmasiga yukladi.

7 U jabr koʻrdi, oʻzi uqubat chekdi,
Ammo miq etmadi, ogʻzini ochmadi.
Boʻgʻizlanishga olib borilgan qoʻziday,
Jun qirquvchi oldida jim turgan qoʻyday
U miq etmadi, ogʻzini ochmadi.
8 Hukm bilan, kuch bilan* olib ketildi.
Uning nasli haqida kim oʻylaydi?*
Tiriklar yurtidan u uloqtirildi,
Xalqimizning* gunohi tufayli unga zarba tushdi.
9 Garchi u yovuzlik qilmagan boʻlsa ham,
Ogʻzidan yolgʻon soʻz chiqmagan boʻlsa ham,
Unga yovuzlar qatori qabr berilgandi,
Ammo oʻlganda u boylar yoniga qoʻyildi.

10 Egamiz Oʻz qulini ezishni, azoblashni ma’qul koʻrdi.
Shunday boʻlsa ham, Egamizning quli oʻz naslini koʻradi,
Uzoq umr kechiradi,
Chunki u oʻzini gunoh uchun nazr qildi.
U orqali Egamizning xohishi bajo boʻladi.
11 Chekkan azoblarining natijasini koʻrib*,
U mamnun boʻladi.
Mening solih qulim oʻz bilimi tufayli
Koʻpchilikni oqlab, ularning aybini oʻziga oladi.
12 Shu bois buyuklar qatorida unga ulush beraman*,
U kuchlilar bilan oʻljalarni boʻlishadi.
Axir, u oʻzini oʻlimga tutib berdi,
Gunohkorlar qatorida sanaldi.
Koʻplarning gunohini u oʻziga oldi,
Gunohkorlar uchun vasiylik qildi.

54–BOB

Xudoning Oʻz xalqiga boʻlgan sevgisi

1 Egam aytar: “Ey bola koʻrmagan bepusht ayol!

Shodlikdan hayqir!
Ey to‘lg‘oq og‘rig‘ini bilmagan ayol!
Sevinchdan hayqir!
Axir, tashlab ketilgan ayolning bolalari
Eri bor xotinnikidan ham ko‘proq bo‘ladi.
2 Chodiring joyini kengaytirgin,
Chodiring pardalarini keng cho‘zdirgin!
Hech narsani ayama!
Arqonlaringni uzun tashlagin,
Qoziqlaringni mahkam qoqqin!
3 Axir, mulking o‘ngu so‘lga kengayib ketadi.
Avloding xalqlarni mulk qilib oladi,
Ular tashlandiq shaharlarni to‘ldiradi.
4 Qo‘rqma, uyatga qolmaysan,
Uyalma, sharmanda bo‘lmaysan!
Axir, sen yoshligingdagi sharmandalikni unutasan,
Bevaligingdagi sharmandalikni boshqa eslamaysan.
5 Zotan, Men, Yaratuvching, sening ering bo‘laman.
Mening nomim Sarvari Olamdir!
Men, Isroil xalqining Muqaddas Xudosi, qutqaruvchingman,
Men butun yer yuzining Xudosi deb atalaman.
6 Ey Isroil! Sen tashlab ketilgan,
Ruhi azoblangan ayoldaysan.
Rad etilgan, yosh juvondaysan.
Ammo Men, Egang, seni chaqirib olaman,
— demoqda Xudoying. —
7 Qisqa vaqtga Men seni tark etgandim,
Buyuk shafqat ila seni qaytarib olaman.
8 Qattiq g‘azabda sendan bir lahzaga yuz o‘girgandim,
Endi tuganmas mehr bilan senga rahm qilaman,
— demoqda qutqaruvching — Egamiz. —

9 Ha, Men uchun bu Nuh davri kabidir.
Endi yer yuzini Nuh to‘foni kabi,
Hech qachon suv bosmaydi, deb ont ichganman.
Xuddi shunday qilib, yana ont ichaman:
«Hech qachon sendan g‘azablanmayman,
Senga jahl qilmayman!»
10 Tog‘lar o‘rnidan qo‘zg‘alsa ham,
Tepaliklar tebransa ham,
Mening sodiq sevgim sendan ketmaydi,
Mening tinchlik ahdim o‘zgarmaydi.”
Seni sevuvchi Egamizning kalomi shudir.

Bo‘lajak Quddus

11 Egam aytar: “Ey mazlum shahar!

Bo‘ronlarda qolding, ammo hech kim seni yupatmadi!
Mana, Men firuza toshlar ishlatib, seni qayta quraman.
Zangori yoqut toshlardan senga poydevor qo‘yaman.
12 Minoralaringni yoqutlardan quraman,
Darvozalaringni gavharlardan qilaman,
Barcha devorlaringni qimmatbaho toshlardan quraman.
13 Hamma bolalaringga Men, Egang, ta’lim beraman,
Farzandlaringning tinchligi buyuk bo‘ladi.
14 Men seni dushmanlaringdan xalos qilganimda
Sen bexatar bo‘lasan.
Zulm sendan uzoqda bo‘ladi,
Halokatdan qo‘rqmaysan,
Chunki u senga yaqinlashmaydi.
15 Agar kimdir senga hujum qilsa,
Bilginki, uni Men qilmagan bo‘laman.
Senga hujum qilgan har kim mag‘lub bo‘ladi.
16 Temirchiga qara!
U toshko‘mir cho‘g‘ini puflaydi,
Qotillik uchun qurol yasaydi.
Uni Men yaratganman.
Vayron qilsin deb,
Bosqinchini ham Men yaratdim.
17 Senga qarshi yasalgan
Hech qanday qurol senga bas kela olmaydi.
Sen bilan da’volashgan har bir odamning
Da’volarini sen yo‘qqa chiqarasan.
Mening qullarimga ana shular nasib qiladi,
O‘zim ularga g‘alaba ato qilaman.”
Egamizning kalomi shudir.

55–BOB

Xudoning mehr–shafqati

1 Egam aytar:
“Ey tashna bo‘lganlar! Hammangiz suvga kelinglar!
Ey pulsizlar, keling, sotib olib, yenglar!
Keling, sharobu sut sotib oling pulsiz, tekinga!
2 Nima uchun pulingizni
Qorin to‘yg‘izmaydigan narsaga sarf qilasiz?
Nima uchun ishlab topganingizni
Qoniqtirmaydigan narsalarga sarf qilasiz?
Eshiting, Menga quloq soling!
Shunda a’lo taomlarni yeysiz,
Yog‘li taomlar yeb, maza qilasiz.

3 Quloq soling, Menga keling,
Tinglang, shunda yashaysiz.
Dovudga va’da bergan sodiq sevgim haqi
Siz bilan abadiy ahd tuzaman.
4 Mana Men Dovudni xalqlarga guvoh qildim,
Uni xalqlarning hukmdori, rahnamosi qildim.
5 O‘zingiz tanimagan xalqlarni chaqirasiz,
Sizni tanimagan xalqlar oldingizga keladi.
Meni, Isroil xalqining Muqaddas Xudosi —
Egangiz Xudoni deb
Bu xalqlar keladi,
Zotan, Men sizni ulug‘vorlikka burkaganman.”

6 Egangiz yoningizda ekan, Unga intiling,
U yaqiningizda ekan, Uni chaqiring!
7 Badkirdor yo‘lidan qaytsin,
Gunohkor niyatidan qaytsin,
Ular Egamizga qaytsin,
Egamiz shafqat ko‘rsatadi,
Ular Xudoyimizga qaytsin,
Uning yuragi kechirimga boy.

8 Egamiz shunday demoqda:
“Sizlarning fikringiz Meniki emas,
Mening yo‘llarim sizlarniki emas.
9 Osmon yerdan qanchalik baland bo‘lsa,
Mening yo‘llarim ham, o‘ylarim ham,
Sizlarning yo‘llaringizdan, o‘ylaringizdan
Shunchalik balanddir.

10 Osmondan qor, yomg‘ir yog‘adi.
Ular osmonga qaytmay, yerni sug‘oradi,
Toki yer o‘simlik o‘stirsin,
Ekkani don, yegani non bersin.
11 Mening og‘zimdan chiqqan so‘z shunday bo‘ladi,
Menga bo‘m–bo‘sh qaytib kelmaydi.
Mening xohish–irodamni o‘sha so‘z bajaradi,
Qaysi niyatda yuborsam,
O‘shani bajo qiladi.

12 Ha, siz xursand bo‘lib borasiz,
Sog‘–omon qaytib kelasiz.
Oldingizda tog‘lar, tepaliklar
Sevinch ila hayqiradi,
Daladagi hamma daraxtlar qarsak chaladi.
13 Tikanzorlar o‘rniga sarv daraxtlari o‘sadi,

Gazanda o‘t o‘rniga mirta butalari* o‘sadi.
Shunday qilib, bular Men, Egangga sharaf bo‘ladi.
Tuganmas, abadiy nishona bo‘lib qoladi.”

56–BOB

Hamma xalqlar Xudoning xalqiga qo‘shiladi

1 Egamiz shunday aytmoqda:
“Adolatni himoya qiling,
To‘g‘ri ishlarni qiling.
Zotan, yaqinda najot beraman,
Tez orada adolatimni zohir etaman.
2 Shabbat kunini tahqirlamay,
Unga rioya qiladigan inson baxtlidir!
Har qanday yovuzlikdan qo‘lini tiyib,
Barqaror bo‘lgan inson baxtlidir!”

3 Begona xalqdan bo‘la turib,
O‘zini Egamizga bag‘ishlagan odam:
“Egamiz meni, baribir, O‘z xalqidan ajratadi”, deb aytmasin.
Bichilgan erkak ham:
“Men qurigan daraxtman”, deb aytmasin.
4 Zotan, Egamiz o‘sha erkaklarga shunday aytmoqda:
“Shabbat kuniga rioya qiling.
Meni mamnun qiladiganlarni tanlang.
Mening ahdimga sodiq bo‘ling.
5 Shunda sizlarga uyimda
O‘g‘ilu qizlarimnikidan ham ko‘ra,
Yaxshiroq nom, xotira beraman.
Bu nom yo‘qolmaydigan, abadiy bir nom bo‘ladi.”

6 Egamizni sevib, xizmat qiladigan,
Shabbat kuniga rioya etadigan,
Egamizning ahdiga sodiq bo‘lgan,
Begona xalqdan bo‘lib turib,
O‘zini Egamizga bag‘ishlaganlarga
Egamiz shunday demoqda:
7 “Men sizlarni muqaddas tog‘imga* olib kelaman.
Ma’badimda sizlarni mamnun qilaman.
Kuydiriladigan qurbonliklaru nazrlaringiz
Qurbongohimda qabul bo‘ladi.
Mening uyim barcha xalqlarning ibodat uyi deb ataladi.”
8 Tarqalib ketgan Isroil xalqini yig‘adigan
Egamiz Rabbiy aytmoqda:
“Uyimda yig‘ilganlar yoniga

Men yana boshqalarni yig‘ib kelaman.”

Isroil xalqining yo‘lboshchilari hukm qilinadi

9 Ey dashtdagi hamma hayvonlar,
Ey o‘rmondagi barcha hayvonlar!
Kelinglar, xalqimni yeb bitiringlar!
10 Isroilning soqchilari ko‘rdir!
Ularning hammasi idroksiz,
Vovullamaydigan tilsiz itlar kabidir.
Yotib olib, tush ko‘radilar,
Ular uyquni yaxshi ko‘radilar.

11 Ular to‘yganini bilmagan
Ochko‘z itlarga o‘xshar,
Bu cho‘ponlar idroksiz!
O‘z foydasini ko‘zlab,
Har biri o‘z yo‘lidan ketdi.
12 Ular shunday deydi:
“Qani, kelinglar, sharob ichaylik,
Ichkilikka rosa to‘yaylik.
Erta ham bugun kabi bo‘ladi,
Hatto undan ham yaxshiroq bo‘ladi.”

57–BOB

Butparast Isroil xalqi hukm qilinadi

1 Egam aytar: “Solih odamlar o‘lib ketyapti,
Hech kim bu haqda fikr yuritmaydi.
Taqvodorlar yo‘q bo‘lyapti.
Yovuzlikdan qutulsin deb,
Solihlar olamdan o‘tyapti.
Hech kim bu haqda o‘ylab ham ko‘rmaydi.
2 Solih insonlar tinchlikka erishadi,
To‘g‘ri yurganlar o‘limda ham orom topadi.
3 Sizlar esa, ey folbinning o‘g‘illari,
Yaqinroq keling!
Bu yoqqa keling, ey zinokor, fohishalar urug‘i!
4 Xo‘sh, sizlar kimning ustidan kulyapsiz?
Kimga qarshi og‘iz ochyapsiz?
Kimga qarab tilingizni chiqaryapsiz?
Axir, itoatsizlarning bolalarisiz–ku!
Yolg‘onchining urug‘idan kelib chiqqansizlar–ku!
Shunday emasmi?!
5 Har bir yam–yashil daraxt ostida*
Shahvat bilan gunohga berildingiz!*
Daryo bo‘ylarida, qoyalar kovagida

O‘z farzandlaringizni qurbonlik qildingiz!
6 Sizlar sevgan butlar daryoning silliq toshlari orasidadir!
Ha, o‘sha butlarga sizlar ko‘ngil qo‘ygansiz!
Ana o‘shalarga sharob nazrlari berdingiz,
Ularga don nazrlarini atadingiz.
Xo‘sh, bulardan Men xursand bo‘laymi?!
7 Baland, buyuk tog‘da yotoq qurasiz,
Qurbonlik keltiray deb, o‘sha yerga chiqasiz.
8 Eshiklaringiz orqasiga,
Eshiklaringizning kesakisi* ortiga
Jirkanch tamg‘alaringizni qo‘ydingiz.
Ha, Mendan yuz o‘girdingiz,
Yalang‘och bo‘lib yotog‘ingizga kirdingiz,
O‘ynashlaringiz bilan ahd tuzdingiz,
Ular bilan yotishni juda yoqtirib qoldingiz.
Ularning yalang‘och badanidan ko‘z uzmadingiz.
9 Zaytun moyi bilan ko‘pgina xushbo‘y atirlar olib,
O‘z shohingizga* hadyalar qildingiz.
Uzoqlarga, hatto o‘liklar diyoriga*
Elchilaringizni yubordingiz.
10 U yoqdan–bu yoqqa yuraverib, toliqdingiz,
Ammo shunda ham umidingizni uzmadingiz.
Qaytadan kuch tikladingiz,
Shu bois hech zaiflashmadingiz.
11 Kim sizlarni vahimaga soldi?
Kim sizlarni shunchalik qo‘rqitdi?
Yolg‘on gapirdingiz. Meni eslamadingiz!
Men haqimda o‘ylab ham ko‘rmadingiz!
Uzoq sukut saqlaganim sababli
Mendan qo‘rqmay qo‘ydingiz!

12 Mana endi o‘zingizcha to‘g‘ri deb bilgan
O‘sha ishlaringizni ochib tashlayman.
Ular sizga bitta ham foyda keltirmaydi.
13 Yordam so‘rab, faryod qilganingizda
Atrofingizdagi butlar sizlarni qutqarsin!
Ularning hammasini shamol supurib ketadi,
Shabada ularni uchirib ketadi.
Mendan panoh topganlar esa yurtni mulk qilib oladi,
Ular Mening muqaddas tog‘imga* egalik qiladi.”
14 Egam shunday aytmoqda:
“Tuproq yig‘ib, yo‘lni tayyorlang,
Xalqim yo‘lidagi to‘siqlarni olib tashlang.”

Xudoning madad va shifo haqidagi va’dasi

15 Yuksak, yuqori bo‘lgan, abadiy yashaydigan Egamiz,

Nomi muqaddas Egamiz shunday aytmoqda:
“Men yuksakda, muqaddas maskanda yashayman.
Kamtarlar ruhini qayta tiklay deb,
Itoatkorlar qalbini jonlantiray deb,
Ruhi kamtar, itoatkor odamlar bilan birgaman.
16 Axir, Men to abad da’volashmayman,
Abadiy qahr–g‘azabda bo‘lmayman.
Aks holda, Men yaratgan tirik jonzot,
Inson zoti oldimda tura olmasdi.
17 Ularning gunohu hasadgo‘yligi tufayli
G‘azablanib, ularni jazoladim.
Qahr bilan ulardan yuz o‘girdim,
Ammo baribir istagan yo‘llaridan ketdilar.
18 Ularning yurgan yo‘llarini ko‘rdim,
Mayli, endi shifo berib, yo‘l ko‘rsataman,
Ularga ham, aza tutayotganlarga ham
O‘zim tasalli beraman.
19 Ularning tillarini madhiyaga to‘ldiraman.
Uzog‘u yaqindagilarga tinchlik bo‘lsin!
— demoqda Egamiz. —
Men ularga shifo beraman.
20 Fosiqlar esa to‘lqinlangan dengizdaydir.
Ha, ular tinch tura olmaydigan dengizga o‘xshaydi.
O‘sha dengizning suvlari loy, balchiq keltiradi.”
21 Xudoyim shunday deydi:
“Yomonlarga tinchlik yo‘q.”

58–BOB

Haqiqiy ro‘za

1 Egam aytar:
“Ovozingni ayamay, qattiq hayqirgin,
Karnayga o‘xshab, barala baqirgin.
Xalqimning itoatsizligini fosh qilgin,
Yoqub xonadonining gunohlarini yuziga solgin.
2 Xuddi to‘g‘ri yo‘ldan yurgan xalqqa o‘xshab,
Ular har kuni Menga intilganday bo‘ladi.
Xudosining amrlarini unutmagan xalqday,
Yo‘llarimni bilmoq istaydi.
Mendan odil hukm so‘raydi,
Men, Xudoga yaqinlashishni istaganga o‘xshaydi.

3 Ey xalqim, sizlar Menga:
«Ro‘za tutyapmiz–ku, Sen ko‘rmayapsan,
Senga itoat qilyapmiz–ku, nega bilmaysan?!» deb aytasizlar.

Axir, roʻza tutgan kuningizda xohlagan ishingizni qilyapsiz,
Ishchilaringizdan ogʻir mehnat talab etyapsiz.
4 Mana, roʻza tutsangiz ham
Janjal, gʻavgʻo qilaverasiz.
Zoʻravonlik bilan qoʻl koʻtaraverasiz.
Bunday roʻzangiz bilan
Ovozingizni samolarga yetkaza olmaysiz!
5 Roʻza tutganingizda oʻzingizni qiynaysiz,
Egilgan qamishday boshingizni egib yurasiz,
Qanor yoyib, kul sochib ustiga yotasiz*.
Shuni roʻza deb ataysizmi?!
Mana shular Men, Egangizni mamnun qiladi, deb oʻylaysizmi?!
6 Men istagan roʻza quyidagicha:
Adolatsizlik kishanlarini parchalang,
Boʻyinturuq arqonlarini uzib tashlang,
Mazlumlarni ozodlikka chiqaring,
Har qanday boʻyinturuqni sindiring!
7 Ovqatingizni ochlar bilan baham koʻring,
Uysizlarga uyingizdan joy bering.
Yalangʻochni koʻrganingizda kiyim bering,
Yaqinlaringizdan yordamingizni ayamang.”

8 Shunda nuringiz tong kabi porlaydi,
Oʻzingiz tezda shifo topasiz.
Egamiz doim oldingizda yurib, sizlarni asraydi,
Ortingizdan Uning ulugʻvorligi sizni qoʻriqlaydi.
9 Shunda yordam soʻraganingizda, Egamiz javob beradi,
Faryod qilganingizda, “Shu yerdaman”, deb aytadi.
Orangizdan zulm boʻyinturugʻini yoʻq qilganingizda,
Barmoqni bigiz qilib, haqorat aytishni bas qilganingizda,
10 Ochlar uchun jon kuydirganingizda,
Mazlumlarning joniga oro kirganingizda,
Nuringiz zulmatda ham porlaydi,
Eng qorongʻi davringiz yop–yorugʻ kunduzday boʻladi.
11 Egamiz doimo sizga yoʻl koʻrsatadi,
Qaqragan yerlarda ham joningizga oziq beradi,
Shunda siz sugʻorilgan bogʻday,
Suvlari qurimas buloqday boʻlasiz.
12 Qadimgi vayronalaringiz qayta tiklanadi,
Koʻhna poydevorlarni qayta koʻtarasiz.
Shunda sizlarni “Buzuq devorni tiklovchi”,
“Koʻchalarni qayta quruvchi” deb chaqirishadi.

Shabbat kuniga rioya qilganning mukofoti

13 Shabbat kunini oyoq osti qilmang,
Shu muqaddas kunda

Xohlaganingizni qilishdan o‘zingizni tiying.
Shabbat kunini zavqli deb biling.
Egamizning muqaddas kunini sharafli deb biling.
Bu kunda o‘zingiz istagan yo‘ldan yurmang,
Xohlaganlaringizni qilavermang,
Istagan gaplaringizni gapiravermang.
14 Shabbat kuniga rioya qilsangiz,
Egamiz tufayli shodlik topasiz,
U sizlarni yurtning baland cho‘qqilariga olib chiqadi,
Otangiz Yoqubning mulkidan bahramand qiladi.
Egamizning kalomi shudir!

59–BOB

Ishayo xalqning gunohlarini hukm qiladi

1 Nima, Egamizning qo‘li qisqami? Qutqarolmasa!
Qulog‘i og‘irmi? Eshitmay qolsa!
2 Axir, o‘z ayblaringiz sizni Xudoyingizdan ayirdi,
Gunohlaringiz tufayli U sizdan yuz o‘girdi,
Ibodatlaringizga quloq solmaydi.
3 Ana, qo‘llaringiz qonga bulg‘angan,
Barmoqlaringiz gunohga botgan,
Og‘zingizdan yolg‘on chiqaveradi,
Tilingiz haqsizlikni gapiradi.

4 Hech kimsa, adolat bo‘lsin, deb aytmaydi,
Hech kimsa haqiqat uchun kurashmaydi.
Behuda gaplardan umid qilib, yolg‘onlar aytadi,
Buzuqlikka homilador bo‘lib, yovuzlik tug‘adi.
5 Sizlar ilonning tuxumini bosib o‘tirasiz,
O‘rgimchak uyasini to‘qiysiz.
Bunday tuxumni yeganlar o‘ladi.
Agar bitta tuxum ezilsa,
Undan zaharli ilon o‘rmalab chiqadi.
6 To‘qigan uyangizdan kiyim chiqmaydi,
Siz to‘qiganlar bilan hech kim ustini yopa olmaydi.
Sizlarning ishingiz yaramas ishlardir,
Sizlarning qo‘llaringiz zo‘ravonlikka to‘la.
7 Fosiqlarning oyog‘i yomonlikka shoshiladi,
Ular behuda qon to‘kishga juda usta.
Ularning fikri–zikri gunoh bilan band,
Qadamidan halokatu vayrona keladi.
8 Ular tinchlik yo‘llarini bilmaydi,
Yurgan yo‘lida adolat yo‘q.
O‘zlariga egri yo‘llar qildilar,

Bu yoʻldan yurganlar tinchlik bilmaydi.

Xalq gunohlarini tan oladi

9 Shu bois adolat bizdan uzoq,
Xudo bizni qutqarmaydi.
Nur izlaymiz, ammo faqatgina zulmat bor,
Yorugʻlik izlaymiz, ammo zulmatda yuramiz.
10 Koʻrlarday devorni ushlab yuramiz,
Koʻzi koʻrmaydiganlarday paypaslanamiz.
Kuppa–kunduzi tundagiday qoqilamiz,
Tiriklar orasida oʻliklardaymiz.
11 Hammamiz ayiq kabi boʻkiryapmiz,
Hammamiz musicha kabi nola qilyapmiz.
Adolat kutyapmiz, ammo u yoʻqdir,
Najot kutyapmiz, ammo u bizdan uzoqda.
12 Ha, Xudo oldida koʻp itoatsizlik qildik,
Gunohlarimiz bizga qarshi guvohlik berib turibdi.
Itoatsizligimiz koʻz oʻngimizda,
Ayblarimizni oʻzimiz bilamiz.
13 Itoatsizlik qildik, Egamizni aldadik,
Xudoyimizdan yuz oʻgirdik,
Zulm qoʻzgʻadik, xiyonat qildik,
Yurakda yolgʻon gaplar toʻqib gapirdik.
14 Adolat chekindi, solihlik uzoqqa ketdi.
Axir, haqiqat quvib chiqarildi,
Haqqoniylikka aslo oʻrin qolmadi.
15 Hech qayerda haqiqat yoʻq,
Oʻzini yomonlikdan olib qochgan odam
Halokatga yoʻliqdi.

Egamiz bularni koʻrib,
Adolat yoʻqligidan ozor chekdi.
16 Mazlumlarga yordam beradigan
Hech kimsa yoʻqligini koʻrdi,
Hech kim yoʻqligidan U hayratda qoldi.
Shunda Egamiz Oʻz qoʻli bilan qutqarishga kirishdi,
Xudoning Oʻzi ularga najot berdi.
17 U adolatni sovutday kiyib oldi,
Najot dubulgʻasini boshiga kiydi,
Egamiz qasosni libosday kiyib oldi,
Rashkni chopon qilib oʻrab oldi.
18 Har kimga qilganiga yarasha javob beradi,
Oʻz dushmanlariga gʻazab sochadi,
Gʻanimlaridan qasos oladi,
Dengiz ortidagi yurtlarga
Qilganlariga yarasha toʻliq qaytaradi.

19 G‘arbda Egamizning nomidan qo‘rqadilar,
Sharqda Uning shuhratidan qo‘rquvga tushadilar.
Mana, Egamiz daryoday keladi.
O‘zining Ruhi da’vat etayotgan
Kuchli daryoday keladi.

20 Egamiz shunday aytmoqda:
“Qutqaruvchi Quddusga* keladi,
Yoqub naslining gunohdan qaytganlariga keladi.”

21 Egamiz shunday deydi: “Siz bilan qiladigan ahdim shudir: sizga bergan Ruhim, og‘zingizga solgan so‘zlarim sizlarni tark etmaydi. Hozirdan boshlab, to abad sizlarni, bolalaringizni va nabiralaringizni hech qachon tark etmaydi.”

60–BOB

Quddusning ulug‘vor kelajagi

1 Ey Quddus xalqi, tur, porlagin! Axir, nuring keldi,
Egamizning ulug‘vorligi ustingga yog‘ildi.
2 Mana, yer yuzini zulmat qopladi,
Xalqlarni quyuq zulmat bosdi.
Ammo Egamiz sening oldingga keladi,
O‘z ulug‘vorligini boshing uzra porlatadi.
3 Xalqlar sening nuringga keladi,
Tonggi yorug‘ligingga shohlar keladi.
4 Boshingni ko‘tarib, atrofingga boq!
Hammasi to‘planib, senga kelmoqda.
O‘g‘illaringni uzoqlardan olib keladilar,
Qizlaringni chaqaloqlarday qo‘llarda ko‘tarib keladilar.
5 O‘shanda shularni ko‘rib, nur sochasan,
Yuraging hapriqib, qinidan chiqquday bo‘ladi.
Zotan, dengiz orqali keladigan boyliklar senga nasib etadi,
Xalqlarning boyligi senga keladi.
6 Yurting tuya suruvlariga to‘lib ketadi,
Midiyon, Efaxning* bo‘taloqlari bilan to‘ladi.
Ularning hammasi Shava yurtidan* keladi,
Oltinu tutatqilar olib keladi.
Ular Egamizga madhlar aytadi.
7 Kedarning hamma qo‘y suruvlari senga keladi,
Navayotning* qo‘chqorlari senga xizmat qiladi.
Egamizning qurbongohida
Ular qurbonlik deb qabul qilinadi.
Egamiz O‘z uyini yanada ulug‘vor qiladi.

8 Bulutlar kabi, uchayotgan nima u?
Inlariga uchayotgan kaptarlarga o‘xshash nima u?

9 Shubhasiz, dengiz ortidagi yurtlar
Egamizga muntazir bo‘ladi.
Isroil xalqining Muqaddas Xudosi —
Egangiz Xudoning sharafiga
Tarshish* kemalari boshchiligida
Bolalaringizni uzoqdan olib kelishadi,
Oltinu kumushlari bilan birga olib kelishadi.
Zotan, Egamiz seni ulug‘vorlik bilan qoplagan.

10 Egamiz Quddusga shunday deydi:
“Begonalar devorlaringni tuzatadi,
Shohlari senga xizmat qiladi.
G‘azablanganimda senga jazo bergan bo‘lsam ham,
Endi marhamat qilib, senga shafqat qilaman.
11 Darvozalaring doimo ochiq bo‘ladi,
Ular kechayu kunduz yopilmaydi.
Shunda xalqlar senga boyliklarini olib keladi,
Ularni o‘z shohlari boshlab keladi.
12 Senga xizmat qilmagan elatu shohlik yo‘q bo‘ladi,
Ha, u xalqlar batamom nobud bo‘ladi.
13 Lubnonning faxrlangan daraxtlari
Senga olib kelinadi.
Sarv, chinor, sadr yog‘ochlari
Muqaddas maskanimni bezatish uchun keltiriladi.
Oyog‘im turgan shu joyga Men shuhrat keltiraman.
14 Senga zulm qilganlarning o‘g‘illari kelib,
Senga ta’zim qiladilar.
Sendan nafratlanganlarning hammasi
Oyoqlaringga yiqiladi.
Ular seni «Egamizning shahri,
Isroil xalqining Muqaddas Xudosining shahri — Sion» deb atashadi.
15 Ilgari sen tashlab ketilgan,
Hamma nafrat etgan,
Biror kimsa o‘tmaydigan joy eding.
Endi Men seni abadiy ulug‘vor qilaman,
Jamiki nasllarning shodligi qilaman.
16 Elatlar, shohlar seni ona kabi emizadilar,
O‘shanda Men, Egang, sening najotkoring ekanligimni bilib olasan,
Yoqub naslining qudratli Xudosi —
Qutqaruvching Men ekanligimni anglaysan.
17 Senga bronza o‘rniga oltin,
Temir o‘rniga kumush,
Yog‘och o‘rniga bronza,
Tosh o‘rniga temir keltiraman.
Tinchlik sening hakaming,

Solihlik hukmdoring bo‘ladi.
18 Yurtingda endi zo‘ravonlik tovushi eshitilmaydi,
Chegarang ichida vayronagarchilik, halokat bo‘lmaydi.
Devorlaringga, Najot deb nom qo‘yasan,
Darvozalaringga, Sharaf deya nom berasan.

Xudoning O‘zi Quddusning ulug‘vorligidir

19 Endi kunduzi quyosh senga nur sochmaydi,
Oy ham yorug‘lik manbaing bo‘lmaydi.
Senga Mening O‘zim to abad nur manbai bo‘laman,
Men, Xudoying, sening ulug‘vorliging bo‘laman.
20 Quyoshing hech qachon botmaydi,
Oying endi boshqa yashirinmaydi,
Chunki Men sening quyoshu oying bo‘laman.
Ha, Men sening to abad nuring bo‘laman,
Qayg‘uli kunlaring tamom bo‘ladi.
21 Xalqingning hammasi solih bo‘ladi,
Ular yurtni to abad mulk qilib oladi.
O‘zim o‘tqazgan niholdir ular,
Menga shuhrat keltirsin deb, yaratgan
Qo‘llarimning ijodi ular.
22 Eng kichik odamingdan mingta odam chiqadi,
Eng zaif odamingdan kuchli xalq paydo bo‘ladi.
Men, Egang, buni o‘z vaqtida tez bajo keltiraman.”

61–BOB

Najot haqida xushxabar

1 Egamiz Rabbiyning Ruhi meni qamrab olgan,
Chunki U meni tanlagan.
“Yo‘qsillarga xushxabar yetkazsin,
Xasta qalblarga shifo bersin,
Asirlarga ozodlik e’lon qilsin,
Zindondagilarga erkinlik xabarini bersin” deb,
Egam meni yubordi.
2 “Egamning marhamat yilini,
Xudoning qasos oladigan kunini e’lon qilsin,
Azadorlarning hammasini ovutsin” deb,
Egam meni yubordi.
3 “Quddusda* nola qilayotganlarga tasalli bersin,
Ularga kul o‘rniga zeb–ziynat,
Aza o‘rniga shodlik moyi,
Ma’yus ruh o‘rniga madhiya bersin” deb,
Egam meni yubordi.
Endi ularni “Egamiz O‘z shuhrati uchun ekkan ko‘chatlar,
Solihlik emanlari” deb atashadi.

4 Endi ular qadimgi vayronalarni qayta tiklaydi,
Azaliy vayrona yerlarni yana o‘nglaydi,
Nasllar osha vayron yotgan shaharlarni qayta quradi.

5 Ey xalqim, begonalar kelib, mol–qo‘ylaringizni boqadi,
Yot xalq o‘g‘illari dehqoningiz, bog‘boningiz bo‘ladi.
6 Sizlarni esa Egamizning ruhoniylari deb atashadi,
Xudoyimizning xizmatkorlari degan nom olasizlar.
Elatlarning boyliklari sizlarniki bo‘ladi,
O‘zga xalqlardan kelgan mol–mulk bilan faxrlanasiz.
7 Uyat o‘rniga sizlar ikki hissa ulush olasiz.
Sharmanda bo‘lmaysiz, olgan mulkingizdan shodlanasiz.
Ha, o‘z yurtingizda ikki hissa ulush olasiz,
Abadiy shodlikka ega bo‘lasiz.

8 Egam aytar: “Men, Egangiz, adolatni sevaman,
Talonchilik, haqsizlikdan nafratlanaman.
Sadoqat bilan xalqimga mukofotini beraman.
Ular bilan abadiy ahd tuzaman.
9 Ularning nasli xalqlar orasida mashhur bo‘ladi,
Ularning zurriyoti ellar orasida dong taratadi,
Ko‘rganlarning hammasi ularni
«Egamiz baraka bergan xalq» deb tan oladi.”

10 Egam tufayli men buyuk shodlik topaman,
Xudoyim deb qalbim jo‘sh uradi.
Zotan, U meni najot libosi bilan o‘radi,
Zafar kiyimini menga kiydirdi.
Men toj kiygan kuyovga o‘xshayman,
Zeb–ziynat bilan bezangan kelindayman.
11 Yer o‘simlikni yetishtirgani kabi,
Bog‘ ekilganlarni o‘stirgani singari,
Egamiz Rabbiy barcha xalqlar ko‘z o‘ngida
Solihlik va madhiyalarni yetishtiradi.

62–BOB

Quddusning yangi nomi

1 Quddus haqi, men sukut saqlamayman,
Sion haqi, men jim turmayman.
Uning zafari tong kabi nur sochmaguncha,
Uning najoti mash’ala kabi yonmaguncha,
Men aslo jim turmayman.
2 Ey Quddus xalqi, xalqlar sizning g‘alabangizni,
Har bir shoh shuhratingizni ko‘radi.
Ular sizni yangi nom bilan ataydi,

Bu nomni Egamizning O‘zi sizlarga beradi.
3 Sizlar Egamizning qo‘lida go‘zallik tillaqoshi,
Xudoyingizning qo‘lida shohlik toji bo‘lasiz.
4 Endi sizni “Tark etilgan” deb aytmaslar,
Sizning yurtingizni “Tashlandiq” deb atamaslar.
Endi sizga “Undan mamnunman” degan nom beriladi,
Yurtingizni esa “Oilali” deb aytishadi.
Zotan, Egangiz sizdan mamnun bo‘ladi,
Yurtingiz ham oilali bo‘ladi.
5 Yigit qiz bilan turmush qurganday,
O‘g‘illaringiz yurtingizga bog‘lanib,
Unga egalik qiladi.
Kuyov kelin bilan qanday shod bo‘lsa,
Xudoyingiz siz bilan shunday sevinadi.

6 Ey Quddus, devorlaringga soqchilar qo‘ydim,
Ular kechayu kunduz ibodatni bas qilmaydi.
Ey Egamizga ibodat qiladiganlar!
Sizlar ham hech jim turmang.
7 Quddusni barqaror qilgunga qadar,
Uni yer yuzining faxri qilmagunga qadar,
Egamizga hech tinchlik bermanglar.

8 Egamiz o‘ng qo‘lini ko‘tarib,
O‘z qudrati bilan ont ichdi:
“Hech qachon dushmanlaringizga
Doningizni yemish qilib bermayman.
Mehnatingiz singgan sharobni
Begonalar ichmaydi.
9 Ha, don yiqqanlarning o‘zi don yeydi–da,
Men, Egasiga hamdu sano aytadi.
Uzumni yig‘ib–terganlar
Sharobni muqaddas hovlimda ichadi.”

10 Ey Quddus aholisi, darvozalardan chiqing!
Qaytayotgan xalqqa yo‘lni tayyorlang!
Tuproq yig‘ib yo‘l qiling,
Toshlarni terib tashlang,
Xalqlar uchun bayroq tiking!
11 Mana, Egamiz yerning to‘rt chetiga e’lon qilmoqda:
“Go‘zal Quddusga* shunday deb ayting:
«Qara, najotkoring kelmoqda,
Ana, Uning O‘zi taqdirlaydi,
Mukofotini O‘zi bilan olib kelmoqda.»”
12 Ey Quddus, sening xalqingni “Muqaddas” deb aytadilar,

“Egamiz qutqargan xalq” deb aytadilar.
Seni “Egamiz izlab topgan, tark etilmagan shahar” deb ataydilar.

63–BOB

Xudoning qasosi va najoti

1 Edomdan kelayotgan kim?
Qizil libos kiyib,
Bozrax shahridan* kelayotgan kim?
Ko‘zni qamashtiruvchi kiyimlar kiyib,
Katta kuch bilan qadam bosgan kim?

Egamiz shunday dedi:
“Bu Men, Egangizman! Qutqarish kuchiga egaman.
G‘alabani e’lon qilishga kelmoqdaman.”

2 Ey Egam, nechun kiyimlaring qip–qizil?
Nima uchun chuqurda uzum ezgan odamga* o‘xshaysan?

Egamiz javob berdi:
3 “Uzum siqish chuqurida O‘zim ishladim,
Yonimda xalqlardan birontasi yo‘q edi.
G‘azab bilan dushmanlarni ezdim,
Qahr bilan ularni oyoq osti qildim.
Ularning qoni kiyimlarimga sachradi,
Butun ust–boshimni iflos qildi.
4 Ha, Men qasos kunini tayinlab qo‘ygan edim,
Xalqimni qutqaradigan kun yetib keldi.
5 Qaradim, yordam beradigan biror odam yo‘q edi,
Qo‘llab–quvvatlaydigan hech kimsa yo‘qligidan hayratda qoldim.
Shunda O‘zimning qo‘lim yordamga keldi,
O‘z g‘azabim Menga madad bo‘ldi.
6 G‘azab bilan xalqlarni tepkiladim,
Jahl bilan ularni ezib tashladim.
Ularning qonini yerga to‘kdim.”

Xudoning Isroil xalqiga qilgan yaxshiligi

7 Egamizning sodiq sevgisi haqida aytaman,
Qilgan ishlari uchun Egamizga hamdlar aytaman.
O‘zining mehr–shafqati, buyuk sevgisi bilan
Isroil xalqiga qilgan buyuk ezguliklari haqida aytaman.
8 Egamiz shunday dedi:
“Ha, Isroil xalqi Mening xalqimdir,
Xiyonat qilmaydigan farzandlardir.”
Shunday qilib, Xudo ularning najotkori bo‘ldi.
9 Ular qiynalganlarida, U ham azob chekdi,

Egamizning farishtasi ularni qutqardi.
Sevgisi, shafqati tufayli Uning O‘zi ularni qutqardi.
Egamiz ularni ko‘tarib, azaldan opichlab yurardi.

10 Ammo ular isyon qildilar,
Egamizning Muqaddas Ruhini ranjitdilar.
Shuning uchun Egamiz ularning dushmani bo‘ldi.
Egamizning O‘zi ularga qarshi kurashdi.
11 Shunda xalq o‘tgan kunlarni,
Musoning davrini eslab, shunday dedi:
“Ota–bobolarimizni va ularning cho‘ponlarini dengizdan o‘tkazgan qani?
O‘z Muqaddas Ruhini ularning orasiga yuborgan qani?
12 Ajoyib qudratli qo‘li bilan
Musoning o‘ng qo‘lidan tutgan qani?
O‘zining nomini sharaflay deb,
Ularning oldidagi suvni ikkiga bo‘lgan qani?”
13 Egamiz ularni dengiz tubidan olib o‘tdi.
Tekis joyda yurgan otday
Ular hech qoqilmasdan o‘tdi.
14 Vodiyga yoyilgan podaga o‘xshatib,
Egamizning Ruhi ularga orom berdi.
O‘zining buyuk nomi ulug‘lansin deya,
Egamiz O‘z xalqiga yo‘l ko‘rsatdi.

Mehr–shafqat va madad uchun ibodat

15 Ey Egamiz, osmondan qara,
Muqaddas, ulug‘vorlikka to‘la
Maskaningdan boq!
Qani endi g‘ayrating, qudrating?
Sen mehribonligingni, shafqatingni
Bizdan darig‘ tutding.
16 Axir, Sen bizning otamizsan, ey Egamiz!
Ibrohim bizni bilmaydi,
Yoqub* bizni tanimaydi.
Sen bizning otamizsan!
Azaldan noming — “Qutqaruvchimiz.”
17 Ey Egamiz, nega bizni yo‘lingdan adashtirasan?
Nega bizga Sendan qo‘rqmaydigan tosh yurak bergansan?
Biz Sening qullaringmiz.
Bizning haqi–hurmatimiz,
O‘zingning aziz xalqing haqi–hurmati
Bizga yuz burgin!
18 Sening muqaddas maskaningga
Biz, aziz xalqing, faqat oz vaqt egalik qildik.
Endi esa dushmanlarimiz
U yerni oyoq osti qilib tashladi*.

19 Senga tegishli bo‘lmagan xalqqa,
Sen ustidan hukmron bo‘lmagan elga
Biz allaqachon o‘xshab qoldik.

64–BOB

1 Ey Egam, qaniydi samolarni yorib, pastga tushsang,
Tog‘lar oldingda titrasa!
2 Alanga o‘tinni yondirib, suvni qaynatganday,
Sen ham pastga tushib, xalqlarni titrat.
Toki g‘animlaring nomingni bilsin.
3 Biz kutmagan ajoyib ishlar qilding!
Pastga tushding, oldingda tog‘lar titradi!
4 Axir, Senga umid bog‘laganlarni deb,
Ajoyib ish qiladigan Xudo Sensan.
Senga o‘xshagan xudo haqida
Azaldan hech kim eshitmagan,
Hech bir quloqqa ham kirmagan.
Senga o‘xshagan xudoni hech bir ko‘z ko‘rmagan.
5 Quvonch bilan to‘g‘ri yo‘ldan yurganlarga,
Sening amrlaringni bajarganlarga
Sen peshvoz chiqasan.
Mana, Sen g‘azabdasan,
Biz esa gunoh qildik.
Biz azaldan gunohga botganmiz,
Endi najot topa olamizmi?
6 Hammamiz harom bo‘lib qoldik,
Yaxshi ishlarimizning hammasi hayz lattalari kabidir.
Yaproqlar kabi so‘lib boryapmiz,
Ayblarimiz shamol kabi, bizni uchirib ketyapti.
7 Hech kim Senga sajda qilmaydi,
Hech kim, Egamga o‘zimni bog‘lay, demaydi.
Axir, Sen bizdan yuz o‘girding,
Bizni o‘z gunohlarimiz izmiga topshirding!
8 Ammo endi Sen bizning otamizsan, ey Egamiz!
Biz loymiz, Sen esa kulolsan,
Hammamiz qo‘llaringning ijodimiz!
9 Ey Egamiz, bizga bunchalik g‘azabingni sochaverma,
Gunohlarimizni to abad yodda tutma.
Qara, axir, hammamiz Sening xalqingmiz!
10 Muqaddas shaharlaring* sahroga aylandi,
Quddus vayrona bo‘ldi,
Sion cho‘lu biyobon bo‘lib qoldi.
11 Bizning muqaddas Ma’badimiz, faxrimiz,
Ota–bobolarimiz Senga madhlar kuylagan joy

Endi yonib bitdi.
Bizga qadrli bo‘lganlarning hammasi
Vayronaga aylandi.
12 Ey Egam! Nahot shunda ham O‘zingni tutib turaversang?!
Sukut saqlab, bizni qattiq jazolayversang?!

65–BOB

Xudo hukmining odilligi

1 Egam aytar: “Meni so‘ramaganlarga ko‘rindim,
Meni izlamaganlar topdi.
Menga iltijo qilmagan bir xalqqa:
«Mana Men! Shu yerdaman!» deb aytdim.
2 Itoatsiz xalqni
Kun bo‘yi quchoq ochib kutdim.
Ana, ular o‘zlari xohlagan,
To‘g‘ri bo‘lmagan yo‘llardan yuradi.
3 Ular yuzimga qarab turib,
Jahlimni chiqaradi.
Sajdagoh bog‘larda* to‘xtovsiz qurbonliklar keltiradi,
G‘isht qurbongohlarda* tutatqilar tutatadi.
4 Ular qabrlar orasida o‘tirib,
Yashirin joylarda arvohlarga maslahat soladi*.
Ular cho‘chqa go‘shtini yeydi,
Qozonlarida harom go‘sht qaynatadi.
5 Ular boshqalarga shunday deydi:
«Nariroq tur, menga tegma,
Yana muqaddasligim yuqib qolmasin.»
Bularning hammasi kun bo‘yi yonib turgan olov kabidir.
Ularning tutuni burnimni achitadi.

6 Mana, hammasi ko‘z o‘ngimda yozib qo‘yilgan.
Men jim turmayman, ularni jazolayman.
Qilmishlariga yarasha ularga to‘liq qaytaraman.
7 Ularni o‘zlarining gunohlari uchun
Hamda otalarining gunohlari uchun jazolayman,
— demoqda Egamiz. —
Axir, ular tog‘larda tutatqilar tutatdilar,
Tepaliklarda Meni haqorat qildilar.
Shu bois qilmishlariga yarasha
Ularga jazosini beraman.”

8 Egamiz shunday aytmoqda:
“Agar bir bosh uzumda hali sharbati bor bo‘lsa,
Odamlar: «Uni tashlab yubormang,

Hali foydasi tegadi», deb aytadi.
Men ham O‘z qullarim haqi shunday qilaman,
O‘z xalqimning hammasini yo‘q qilmayman.
9 Tog‘larimni mulk qilib olsin deb,
Isroil* va Yahudo xalqiga avlod beraman.
Tanlagan xalqim tog‘larimga egalik qiladi,
Mening qullarim u yerda yashaydi.
10 Sharon tekisligi qo‘ylar suruvlari uchun yaylov bo‘ladi,
Oxor soyligi* mol–qo‘ylar uchun o‘tloq bo‘ladi.
Ha, bu yerlar Menga intilganlarniki bo‘ladi.

11 Ammo ba’zilaringiz Men, Egangizni tark etdingiz,
Muqaddas tog‘imni* unutdingiz!
«Omad» buti uchun dasturxon yozdingiz,
«Qismat» buti uchun qadahlarga sharob quydingiz!
12 Shundaylarni Men qilichning damiga ro‘para qilaman.
Hammangiz tiz cho‘kasiz, bo‘g‘izlanasiz.
Axir, Men chaqirganimda javob bermadingiz,
Gapirganimda quloq solmadingiz.
Mening oldimda qabihliklar qildingiz,
Men xohlamagan narsalarni tanladingiz.”

13 Shu bois Egamiz Rabbiy aytmoqda:
“Mening qullarim yeydi, sizlar esa och qolasiz,
Qullarim ichadi, sizlar tashnalikdan azob chekasiz,
Qullarim shod–xurram bo‘ladi,
Sizlar esa sharmandayu sharmisor bo‘lasiz.
14 Qullarimning qalbi shodlikka to‘ladi,
Ular qo‘shiqlar kuylaydi.
Sizlar esa yuragingizdagi qayg‘udan dod–voy qilasiz,
Ezilgan ruhingiz tufayli uvullab yig‘laysiz.
15 Men, Egangiz Rabbiy, sizlarni o‘ldiraman,
Sizning nomingiz tanlangan xalqim orasida
La’nat sifatida ishlatiladi.
O‘z qullarimga esa boshqa nom beraman.
16 Kim o‘ziga bu yurtda baraka tilasa,
Men, sodiq Xudoning nomi bilan duo qiladi.
Yurtda kim ont ichadigan bo‘lsa,
Mening nomim bilan ont ichadi.
Oldingi qayg‘ular unutiladi,
Qayg‘u ko‘z oldimdan yo‘qotiladi.

Yangi ulug‘vor ijod

17 Mana, qarang! Yangi osmon, yangi yer yaratyapman.
Ilgari bo‘lganlar endi eslanmaydi,
Ular hech qachon yodga olinmaydi.

18 Yaratayotgan ishlarim tufayli
To abad shodlaning, xursand bo‘ling.
Men Quddusni shodlik qilib,
Xalqini quvonch qilib yaratyapman.
19 Men Quddus tufayli sevinaman,
Xalqim Menga quvonch keltiradi.
Endi Quddusda hech qachon
Yig‘i, faryod tovushi eshitilmaydi.
20 U yerda endi go‘daklar o‘lmaydi,
Biror qariya yoshini yashamay o‘tmaydi.
Birontasi yuz yoshga kirib olamdan o‘tsa,
U haqda: «Evoh, yosh ketdi», deb aytadilar.
Yuzga yetmay o‘lganni la’nati deb biladilar*.
21 Xalqim uylar qurib, o‘zlari o‘sha yerda yashaydi,
Tokzorlar o‘tqazib, hosilini o‘zlari yeydi.
22 Endi ular qurgan uylarda boshqalar yashamaydi,
Ekkan daraxtlarining hosili boshqalarga nasib bo‘lmaydi.
Xalqimning umri chinor umriday uzoq bo‘ladi,
Tanlagan xalqim o‘z qo‘llarining mahsulidan uzoq vaqt bahramand bo‘ladi.
23 Ularning mehnati behuda ketmaydi,
Nasllari baxtsizlikka mubtalo bo‘lmaydi.
Ular Men, Egasidan baraka topgan xalqdir,
Ularning avlodiga ham Men baraka beraman.
24 Menga yolvormaslaridan ham oldin
Xalqimga javob beraman.
Gapirayotgan paytining o‘zidayoq
Ularga quloq tutaman.
25 Bo‘ri bilan qo‘zichoq birga o‘tlab yuradi,
Sher ham ho‘kiz kabi somon yeydi,
Ilon esa tuproq yalaydi.
Muqaddas tog‘imning biron yerida
Hech bir yovuzligu yomonlik qilinmaydi.”
Egamizning kalomi shudir.

66–BOB

Xudo xalqlarni hukm qiladi

1 Egamiz shunday aytmoqda:
“Osmon Mening taxtimdir,
Yer oyog‘im tagidagi kursidir.
Menga qanday uy qurib bera olasiz?!
Qaysi joy Menga maskan bo‘la oladi?!
2 Axir, hammasini O‘z qo‘llarim bilan yaratganman,
Ha, butun borliq Men tufayli mavjuddir,
— demoqda Egamiz. —

Kamtar, mo‘min bo‘lgan odamga,
Kalomim oldida titraydiganga
Men e’tibor bilan qarayman.
3 Ammo buqani qurbonlik qiladigan inson
Odam o‘ldirgan qotil kabidir.
Qo‘zini qurbonlik qiladigan odam
Itning bo‘ynini sindirgan odam kabidir.
Don nazri qiladigan odam
Cho‘chqa qonini nazr qiladigan odam kabidir.
Tutatqi tutatgan odam
Butga topinadigan odam kabidir*.
O‘shalar o‘z yo‘llarini tanladilar,
Qilgan jirkanch ishlaridan jonlari lazzat olar.
4 Men ham ularga qattiq jazo tanlayman.
Ular nimadan qo‘rqsa, o‘shani boshlariga solaman.
Axir, chaqirganimda, hech kim javob bermadi,
Gapirganimda, hech kim quloq solmadi.
Ular Mening oldimda qabihlik qildilar,
Menga noma’qul bo‘lgan yo‘lni tanladilar.”

5 Ey Egamizning kalomini eshitib, titraydiganlar,
Uning so‘zlariga quloq tutinglar:
“Qardoshlaringiz sizdan nafratlanadi,
Mening nomimni deb ular sizni haydagan.
Sizlarni mazax qilib, shunday degan edi:
«Qani, Egangiz ulug‘vorligini ko‘rsatib,
Sizlarni qutqarsin.
Xursand bo‘lganingizni ko‘raylik–chi!»
Endi o‘shalar sharmanda bo‘ladi.”
6 Shahardan kuchli shovqin–suron kelmoqda!
Ma’baddan bir ovoz eshitilmoqda!
Bu Egamizning ovozidir!
U O‘zining dushmanlariga
Qilmishlariga yarasha qaytaradi.

7 Mana, Quddus to‘lg‘oq tutmasdan oldin tug‘di,
To‘lg‘oq tutmay turib, bir o‘g‘il tug‘di.
8 Kim bunday voqeani eshitgan?!
Kim bunday hodisani ko‘rgan?!
Xo‘sh, yurt bir kunda paydo bo‘ladimi?!
Bir onda butun bir xalq dunyoga keladimi?!
Qarang, to‘lg‘og‘i tutar–tutmas
Qiz Quddus* o‘g‘illar tug‘di.
9 “Tug‘adigan paytgacha olib kelaman–u,

Tug‘ishga kuch bermaymanmi?!
— demoqda Egamiz. —
Tug‘ishga kuch beraman–u,
Bachadonni yopib qo‘yamanmi?!”
— deb aytmoqda Xudoyingiz.
10 Ey Quddusni sevadiganlar,
Quddus bilan birga sevining,
Hammangiz u bilan birga shodlaning.
Ey Quddus uchun aza tutganlar,
U bilan birga xursand bo‘ling!
11 Siz uning ko‘kragidan emganday bo‘lib,
To‘yib, tasalli topasiz.
Qonib–qonib ichib,
Uning mo‘l–ko‘l barakasidan zavq olasiz.

12 Ha, Egamiz shunday aytmoqda:
“Men Quddusga tinchlikni daryo kabi,
Elatlarning boyligini toshqin soy kabi oqizib keltiraman.
Quddus sizlarni emizikli boladay qo‘llarida ko‘tarib yuradi,
Sizlarni tizzalariga o‘tirg‘izib, parvarish qiladi.
13 Bolasini ovutgan bir ona kabi,
Men ham sizlarni ovutaman.
Sizlar Quddusda tasalli topasiz.”
14 Bularni ko‘rib, qalbingiz shodlikka to‘ladi,
Tanangiz yangi maysa kabi, hayot bilan to‘liq bo‘ladi.
Egamiz O‘z qullariga qudratini,
Dushmanlariga esa g‘azabini ko‘rsatadi.
15 Mana, qarang! Egamiz olov bilan kelmoqda,
Uning jang aravalari quyunday kelmoqda.
U ayovsiz qasos oladi,
G‘azabi olov kabi yonadi.
16 Ha, Egamiz olovu qilich bilan
Jamiki jonzotlarga qarshi kurashadi.
Uning qo‘lidan ko‘plari halok bo‘ladi.

17 Egamiz shunday aytmoqda: “O‘zlarini poklab, butlarga bag‘ishlaganlar, sajdagoh bog‘larga* borib, yo‘lboshchilariga ergashganlar yo‘q bo‘ladi. Cho‘chqa va boshqa harom, makruh hayvonlarning go‘shtini yeydiganlar, ularning hammasi birgalikda halok bo‘ladi. 18 Ularning ishlaridan, o‘ylaridan nafratlanaman*. Hamma xalqlarni, elatlarni yig‘ish vaqti keldi*. Ular kelib, Mening ulug‘vorligimni ko‘radilar. 19 Men ularning orasida alomat ko‘rsataman. Omon qolganlarini quyidagi xalqlar orasiga yuboraman: Tarshish*, Liviya* xalqlariga, kamonkashlari bilan mashhur bo‘lgan Lidiya* xalqiga, Tuval* va Yunon* xalqlariga, dengiz ortidagi Men haqimda eshitmagan, Mening ulug‘vorligimni ko‘rmagan xalqlarga. Ular Mening buyukligimni o‘zga xalqlarga bildiradilar.”

20 Egamiz shunday deydi: “O‘shanda ular barcha xalqlar orasidan qolgan hamma
birodarlaringizni olib kelishadi. Ularni nazr sifatida muqaddas tog‘im* — Quddusga
keltirishadi. Xuddi Isroil xalqi pok don nazrini Ma’badga olib kelganday, ular
birodarlaringizni Quddusga otlarda, jang aravalarida, ot qo‘shilgan aravalarda,
xachirlarda va tuyalarda olib kelishadi.” 21 Egamiz shunday deydi: “Ularning orasidan
ba’zilarini ruhoniy, ba’zilarini esa levi qilib tayinlayman.”
22 Egamiz shunday aytmoqda: “Men yaratadigan yangi yer va yangi osmon ko‘z
oldimda qancha turadigan bo‘lsa, avlodlaringiz ham, nomingiz ham shuncha turadi.
23 Har yangi oy shodiyonasida, har Shabbat kunida jamiki insonlar huzurimga kelib,
Menga sajda qiladilar, — demoqda Egamiz. 24 — Ular tashqariga chiqqanlarida Menga
qarshi chiqqanlarning jasadlarini ko‘radilar. O‘sha jasadlarni yeydigan qurtlar o‘lmaydi,
ularni yondiradigan olov hech qachon o‘chmaydi. Hammasi barcha inson zotiga jirkanch
bo‘ladi.”

IZOHLAR

1:1 *Yahudo* — Yahudo qabilasi Isroilning janubiy qismidagi eng katta qabila edi. Shoh Sulaymon vafotidan keyin shimoldagi o‘nta qabila janubdagi Yahudo va Benyamin qabilalaridan ajralib chiqdi (3 Shohlar 11:26-12:24 ga qarang). Yahudo va Benyamin qabilalari janubiy shohlik deb ataladigan bo‘ldi. Janubiy shohlikning poytaxti Quddus bo‘lib qolaverdi, ularning o‘z hukmdorlari bor edi. Eski Ahdning ba’zi parchalarida Yahudo so‘zi janubdagi ikkala qabilaga nisbatan ishlatilgan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi YAHUDO so‘ziga qarang.

1:1 *Yahudoda…hukmronlik qilardi* — Uzziyo miloddan oldingi 781-740 yillarda, Yo‘tom miloddan oldingi 742-735 yillarda, Oxoz miloddan oldingi 735-715 yillarda va Hizqiyo miloddan oldingi 716-687 yillarda hukmronlik qilgan.

1:2 *bolalar* — Isroil xalqi nazarda tutilgan.

1:6 *…moy surtilmagan* — zaytun moyi nazarda tutilgan. Qadimgi paytlarda zaytun moyi malham sifatida ishlatilardi. U og‘riq qoldirib, terini qurib ketishdan saqlar edi.

1:7 *…vayron qilar* — bu yerda qo‘llangan ibroniycha so‘z Eski Ahdning boshqa joylarida Sado‘m va G‘amo‘raning halokatiga nisbatan ishlatilgan (shu bobning 9–oyatiga va o‘sha oyatning izohiga qarang).

1:8 *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion* (shu bobning 27–oyatida ham bor). Eski Ahddagi she’riy parchalarda va payg‘ambarlar bitiklarida Sion so‘zi ko‘pincha Quddus shahriga yoki Xudoning xalqiga nisbatan ishlatilgan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi SION so‘ziga qarang.

1:9 *Sado‘m shahri…G‘amo‘ra shahri* — aholisining o‘ta buzuqligi oqibatida Egamiz vayron qilgan ikkita shahar (Ibtido 18:16-19:28 ga qarang).

1:17 *…Yo‘lga soling zolimni…* — yoki *…Ezilganlarni qutqaring….*

1:22 *toshqol* — metall eritilganda qoladigan qotishma. U chiqindi hisoblanadi va tashlab yuboriladi.

1:29 *…O‘zingiz xush ko‘rgan emanlar…O‘zingiz tanlagan sajdagoh bog‘lar…* — katta daraxtlar ostida va maxsus barpo qilingan bog‘larda ko‘pincha mahalliy xudolarga qurbonliklar keltirilardi.

2:3 *Egamizning tog‘i* — Quddusdagi Sion tog‘iga ishora. 4:5 ning ikkinchi izohiga qarang.

2:6 *Ey Yoqub xonadoni! Xalqingizning yo‘llarini siz tark etdingiz!* — yoki *Ey Egamiz! Yoqub naslini — xalqingni Sen tark etding!*

2:6 *bashoratgo‘ylar* — ibroniycha matndagi gap sharqdan kelgan odamlar yoki sharqdan keltirilgan ishonch–e’tiqodlarga ishora qilishi mumkin. *Bashoratgo‘ylar* so‘zi kontekstning mazmuni bo‘yicha mazkur tarjimaga kiritilgan.

2:6 *Filistlar yurti* — Isroil yurtidan g‘arbda, O‘rta yer dengizi bo‘yida joylashgan.

2:13 *Bashan* — Jalila ko‘lining shimoli–sharqidagi hudud.

2:16 *Tarshish* — hozirgi Ispaniyaning hududida joylashgan bu bandargoh shahar

o‘zining katta va haybatli kemalari bilan mashhur edi. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi BANDARGOH so‘ziga qarang.

3:9 *Sado‘m* — 1:9 izohiga qarang.

3:14 *Mening uzumzorim* — Isroil xalqiga ishora (5:1-7 ga qarang).

3:16 *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion* (shu bobning 17–oyatida ham bor). 1:8 izohiga qarang.

4:5 *…kunduzi bulutni, Tunlari tutunni, yorug‘ alangani…* — Xudo Isroil xalqining ajdodlarini qirq yil davomida sahroda boshlab borgan. Bu oyatda ishlatilgan tasvir Isroil xalqiga o‘sha voqealarni eslatadi (Chiqish 13:20-22, 40:36-38 ga qarang).

4:5 *Sion tog‘i* — Quddusdagi Ma’bad qurilgan tepalik Sion tog‘i deb atalgan. Eski Ahddagi she’riy parchalarda va payg‘ambarlar bitiklarida Sion so‘zi ko‘pincha Quddus shahriga yoki Xudoning xalqiga nisbatan ishlatilgan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi SION so‘ziga qarang.

5:2 *Uzum siqish chuquri* — qadimgi paytlarda odamlar uzumni qoyatoshga o‘yilgan chuqurga yoki tuproqdan qazilgan, tubiga va atrofiga zich qilib tosh terilgan chuqurga solib, sharbatini siqib olish uchun oyoqlari bilan ezardilar. Sharbat o‘sha chuqurdan yana boshqa bir chuqurga oqib tushardi.

5:10 *Yigirma tanob* — ibroniycha matnda *O‘nta bo‘yinturuq*, ya’ni o‘n juft ho‘kiz bir kunda shudgor qiladigan dala (taxminan 4 gektar).

5:10 *ikki ko‘za* — ibroniycha matnda *bir bat*, taxminan 22 litrga to‘g‘ri keladi.

5:10 *O‘n savat* — ibroniycha matnda *Bir ho‘mr*, taxminan 220 litrga to‘g‘ri keladi.

5:10 *bir savat* — ibroniycha matnda *bir efa*, taxminan 22 litrga to‘g‘ri keladi.

5:14 *O‘liklar diyori* — ibroniycha matnda *Sheo‘l*. Qadimda Isroil xalqi *Sheo‘l*ni yer ostidagi tubsiz chuqurlik, marhumlar boradigan qorong‘i joy deb tushunardi.

5:17 *…Sarson bo‘lib yurgan bo‘rdoqilar Yeb to‘yadi vayronalarda* — yoki *…Begonalar boylarning vayronalari orasida yeb to‘yadilar*.

5:26 *Uzoqdagi xalqlar* — Ossuriya va Bobil xalqlari nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin. Ossuriya lashkari miloddan oldingi 722 yilda Isroilni, ya’ni shimoliy shohlikni bosib oldi. Miloddan oldingi 701 yilda esa Ossuriyaliklar Yahudoga, ya’ni janubiy shohlikka hujum qilishdi, ammo uni bosib ololmay, ortga chekinishdi. Yahudoni miloddan oldingi 605 yilda Bobil lashkari bosib oldi.

6:1 *Shoh Uzziyo vafot etgan yili* — Uzziyo Yahudoda, ya’ni janubiy shohlikda hukmronlik qilgan bo‘lib, taxminan miloddan oldingi 740 yili vafot etgan.

6:2 *seraflar* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *olovli zotlar*. Ehtimol, bu ilohiy zotlarning ko‘rinishi olov singari bo‘lgan.

7:1 *Oxoz* — miloddan oldingi 736-716 yillarda Yahudoda, ya’ni janubiy shohlikda hukmronlik qilgan.

7:2 *Dovud xonadoni* — shoh Oxoz va uning saroy a’yonlari. Shoh Dovud Yahudo shohlarining bobokaloni edi.

7:2 *Efrayim* — Efrayim qabilasi Isroilning shimoliy qismidagi eng katta va nufuzli qabila

bo‘lgani bois, Eski Ahdning ba’zi o‘rinlarida Efrayim degan nom Isroilga, ya’ni shimoliy shohlikka nisbatan ishlatilgan. Bu shohlikning poytaxti Samariya edi. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi EFRAYIM so‘ziga qarang.

7:3 *Sheryosub* — ibroniychadagi ma’nosi *omon qolganlar qaytadi*.

7:6 *To‘val o‘g‘li* — To‘valning o‘zi haqida ham, o‘g‘li haqida ham hech qanday ma’lumot yo‘q. Ismiga qaraganda To‘val Oramlik bo‘lishi mumkin.

7:11 *o‘liklar diyori* — ibroniycha matnda *Sheo‘l*. 5:14 izohiga qarang.

7:14 *qiz* — bu o‘rinda ishlatilgan ibroniycha so‘z bokira qizga ishora qilishi mumkin (misol uchun, Ibtido 24:34 ga qarang), ammo odatda umuman yosh ayolga nisbatan ishlatilgan. Bu o‘rinda Ishayo ishora qilayotgan alomat ma’lum bir yosh ayol homilador bo‘lib, o‘g‘il ko‘rishi haqidagi bashoratdir. Bu bashoratga ko‘ra, o‘sha o‘g‘il aniq bir yoshga yetguncha 15-16–oyatlarda bayon etilgan voqealar sodir bo‘ladi. Ba’zan bashoratlar ikki qirralidir. Bu bashorat nafaqat o‘sha zamonda bo‘ladigan voqealarga, balki uzoq kelajakda bo‘ladigan voqeaga ham taalluqli. Bashoratning yana bir ma’nosi shuki, uzoq kelajakda bokira qiz homilador bo‘lib, shoh Dovudning avlodi bo‘ladigan o‘g‘il ko‘radi. Mana shu o‘g‘il Masih, ya’ni Najotkor bo‘ladi (to‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi MASIH so‘ziga qarang).

7:14 *Immanuil* — ibroniychadagi ma’nosi *Xudo biz bilandir*.

7:15 *qatiq va asal* — kunda iste’mol qilinadigan, oddiy taomlar edi. Shu bobning 20-25–oyatlariga ko‘ra, bu gap xalq kelajakda qiyinchilikda, qashshoqlikda yashashga mahkum bo‘lishini bildiradi.

7:17 *…Efrayim Yahudodan ajralib chiqqandan beri…* — shoh Sulaymon miloddan oldingi 931 yilda vafot etgandan keyin, Isroil shohligi ikkiga bo‘lindi. Shimoldagi shohlik — Isroil yoki Efrayim, janubdagisi esa Yahudo deb ataladigan bo‘ldi (3 Shohlar 11:41-12:19 ga qarang).

7:20 *…soqolingizni butunlay qirib tashlaydi, boshu oyog‘ingizda birorta tuk qolmaydi* — bu ko‘chma ma’nodagi gap bo‘lib, Isroil xalqi mag‘lubiyatga uchrashini va sharmandalikka duchor bo‘lishini bildiradi.

7:23 *Ming kumush tanga* — ibroniycha matnda *Ming shaqal kumush*, taxminan 11 kiloga to‘g‘ri keladi.

8:1 *Moxirshalolxoshboz* — ibroniychadagi ma’nosi *to‘satdan hujum qilingan, tez tortib olingan* (shu bobning 3–oyatida ham bor).

8:6 *tinch oqadigan Shilo‘vax suvlari* — Gixo‘n bulog‘idan Quddusga oqib keladigan ariq nazarda tutilgan. Bu suvlar Xudoning tinchligi va barakasi ramzidir. Ossuriyaning toshqin suvlari esa, bunga zid holda, Xudoning hukmi belgisidir (shu bobning 7-8–oyatlariga qarang).

8:8 *Xudo biz bilandir* — ibroniycha matnda *Immanuil* (7:14 ga qarang). Shu bobning 10–oyatida ham bor.

8:17-18 *Isroilda biz belgi va alomatmiz* — Ishayo bilan uning ikki o‘g‘li — Sheryosub va Moxirshalolxoshboz ismlarining ma’nosiga ishora (7:3 ga va shu bobning 1, 3–oyatiga qarang). Ibroniychada Ishayo ismining ma’nosi — *Xudo qutqaradi*, Sheryosub ismining

ma’nosi — *omon qolganlar qaytadi* va Moxirshalolxoshboz ismining ma’nosi — *to‘satdan hujum qilingan, tez tortib olingan*.

8:20 *Sizlar ularga emas, Xudoning yo‘l–yo‘riqlari va ta’limotiga maslahat soling* — Qonunlar 18:9-14 ga qarang.

9:1 *Zabulun va Naftali yurti* — Zabulun va Naftali qabilalari Isroil xalqining o‘n ikki qabilalariga kirar edi. Ularga mulk qilib berilgan yerlar Isroilning shimolida, Jalila ko‘lining g‘arb tomonida joylashgan.

9:1 *Iordanning narigi tomonidagi o‘lka* — Iordan daryosining sharq tomonidagi Gilad o‘lkasi nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin.

9:1 *g‘ayriyahudiylar Jalilasi* — Jalila hududi Isroil, ya’ni shimoliy shohlikning bir qismi edi. Miloddan oldingi 722 yilda Ossuriyaliklar Isroilni bosib oldilar. Ular Isroil xalqining ko‘pini asir qilib olib ketdilar (4 Shohlar 17:1-6 ga qarang). Ossuriya shohi boshqa xalqlarni — g‘ayriyahudiylarni Isroil yurtiga majburlab ko‘chirdi (4 Shohlar 17:24 ga qarang).

9:4 *…Midiyon xalqi kabi, Mag‘lub qilgansan* — Xudo Gido‘nga Midiyon xalqi ustidan buyuk g‘alaba bergan payt nazarda tutilgan (Hakamlar 7:1-25 ga qarang).

9:6 *Ajoyib Maslahatchi* — yoki *Ajoyib, Maslahatchi*. Yana 11:2 ga qarang.

9:9 *Efrayim* — 7:2 ning ikkinchi izohiga qarang.

9:10 *shikamora–anjir daraxtlari* — anjirning qadimgi Yaqin Sharqda keng tarqalgan bir turi. Kattaligi yong‘oq daraxtiday, barglari esa tut barglariga o‘xshash bo‘lib, yil davomida bir necha bor hosil beradigan sersoya daraxt.

9:10 *G‘ishtin…Yo‘nilgan toshlar…Shikamora–anjir daraxtlari…sadr daraxtlari…* — g‘isht va anjir daraxtlari oddiy qurilish ashyolari, yo‘nilgan toshlar va sadr daraxtlari esa qimmat qurilish ashyolari edi.

9:14 *…boshini va quyrug‘ini, Xurmosini va qamishini…* — xalqning yo‘lboshchilari va nasihatgo‘ylariga ishora.

9:21 *Manashe qabilasi…Efrayim qabilasi…Yahudo…* — Manashe va Efrayim Isroilni, ya’ni shimoliy shohlikni tashkil qilgan o‘nta qabiladan ikkitasi, Yahudo esa janubiy shohlikni tashkil qilgan ikkita qabiladan asosiysi edi (1:1 ning birinchi izohiga va 7:2 ning ikkinchi izohiga qarang).

10:5 *Ossuriya* — miloddan oldingi 701 yilda Isroilni bosib olgan Ossuriya shohi Sanxariv nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin.

10:9 *Xalno…Karxamish…Xomat…Arpad…* — bu shaharlar hozirgi Suriyaning shimolida joylashgan edi.

10:9 *…Samariya Damashq…* — Samariya Isroilning, ya’ni shimoliy shohlikning poytaxti, Damashq Oram yurtining poytaxti edi.

10:20 *o‘z zulmkorlari* — Ossuriya xalqi nazarda tutilgan.

10:21 *…omon qolganlari Qaytadi…* — ibroniycha matnda *…sheryosub…*. 7:3, 8:17-18 ga va o‘sha oyatlarning izohlariga qarang.

10:24-25 *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion*. 1:8 izohiga qarang.

10:26 *...Midiyonlarni Oriv qoyasida shunday qirgan edim* — Hakamlar 7:22-25 ga qarang.

10:26 *...Misr lashkarini dengizda g'arq qildim* — Chiqish 14:26-28 ga qarang.

10:27 *...bo'yinturuq yo'q qilinadi, chunki sizlar kuchga to'ldingiz* — ibroniycha matndan so'zma–so'z tarjimasi *...semizlik tufayli bo'yinturuq yo'q qilinadi*. Bu o'rinda semizlik so'zi ijobiy ma'noda bo'lib, Xudo O'z xalqiga baraka berishiga, ularni yana kuchli qilishiga ishora qilayotgan bo'lishi mumkin. Ho'kiz semirganda shunchalik katta bo'lib ketadiki, bo'yinturuq uning bo'ynidan sinib tushadi. Bo'yinturuq yo'q qilinadi, degan jumlada shu hodisa nazarda tutilgan bo'lishi mumkin.

10:28 *Oyaz shahri* — Ay shahrining yana bir nomi bo'lishi mumkin. Shu bobning 28-32–oyatlarida aytib o'tilgan joylar Quddus yaqinida edi. Shimoldan kelgan bosqinchilar Quddusga hujum qilish uchun shu yerlarni bosib o'tardilar.

11:1 *Essay* — shoh Dovudning otasi.

11:9 *Muqaddas tog'im* — Quddusdagi Sion tog'iga ishora. 4:5 ning ikkinchi izohiga qarang.

11:10 *...Essayning tomiridan chiqqan...* — ya'ni shoh Dovudning naslidan bo'lgan (shu bobning 1–oyati izohiga qarang).

11:11 *Misrning shimoliy va janubiy hududlaridan...* — ibroniycha matnda *Misrdan, Patro'sdan*.... Misrning janubiy hududi qadimda Patro's nomi bilan atalar edi.

11:11 *Habashiston* — ibroniycha matnda *Kush*. Bu joy Misrdan janubda bo'lib, hozirgi Sudan va Efiopiya mamlakatlarining bir qismini o'z ichiga olgan edi.

11:11 *Elam* — bu yurt Bobil yurtidan janubi–sharqda, hozirgi Eron hududida joylashgan edi.

11:11 *Bobil* — ibroniycha matnda *Shinar*, Mesopotamiyadagi, ya'ni Dajla va Furot daryolari orasida joylashgan yerlardagi bir hududning qadimgi nomi. Bobil shohligi dastlab shu yerda barpo bo'lib, keyinchalik ko'p yerlarni egallagan buyuk shohlik bo'lgan.

11:11 *Xomat* — bu shahar hozirgi Suriyada joylashgan edi.

11:13 *Efrayim* — 7:2 ning ikkinchi izohiga qarang.

11:14 *Edom, Mo'ab* — Edom O'lik dengizning janubida, Mo'ab O'lik dengizning sharqida joylashgan yurtlar edi.

11:14 *Ommon xalqi* — Iordan daryosining sharq tomonidagi hududlarda yashagan xalq.

11:15 *Qizil dengizning qo'ltig'i* — ibroniycha matnda *Misr dengizining tili*, hozirgi Suets qo'ltig'i nazarda tutilgan.

11:15 *Garmsel* — issiq shamol.

12:2 *Egamning O'zi* — ibroniycha matnda *Yah Yahveh*. Ibroniychada *Yahveh* Xudoning ismidir, *Yah* — *Yahveh*ning qisqa shakli.

12:2 *...kuch–qudratimdir* — yoki *...qudratim, shukrona qo'shig'imdir*.

12:6 *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion*. 1:8 izohiga qarang.

13:6 *Egamizning kuni* — Eski Ahddagi payg'ambarlar bitiklarida bir necha marta

uchraydigan ibora. Koʻpincha bu ibora Xudo beradigan jazoga ishora qiladi. Bu ibora yana qiyomat kunidagi Xudoning hukmiga nisbatan ham ishlatiladi. Oʻsha kuni Xudo Oʻz dushmanlari ustidan gʻalaba qozonadi va ularni jazolaydi, Oʻziga sodiq qolganlarga esa orom bagʻishlaydi, ularga tinchlik va qut–barakalar ato qiladi.

13:17 *Midiyaliklar* — Midiya hozirgi Eronning shimoli–gʻarbida joylashgan qudratli shohlik edi. Keyinchalik Midiya Fors shohligining eng muhim viloyatlaridan biri boʻlib qoldi.

13:19 *Bobilliklar* — ibroniycha matnda *Xaldeylar*, oʻsha vaqtda Bobilliklar shu nom bilan ham atalardi.

13:19 *Sadoʻm, Gʻamoʻra* — 1:9 izohiga qarang.

14:4 *Zoʻravon* — Qumron qoʻlyozmalaridan, qadimiy yunoncha va suryoniycha tarjimalardan.

14:9 *Oʻliklar diyori* — ibroniycha matnda *Sheoʻl* (shu bobning 11, 15–oyatlarida ham bor). 5:14 izohiga qarang.

14:21 *Otasi* — qadimiy yunoncha va suryoniycha tarjimalardan. Ibroniycha matnda *Ota–bobolari*.

14:28 *Shoh Oxoz vafot etgan yili* — Oxoz Yahudoda, ya'ni janubiy shohlikda hukmronlik qilib, taxminan miloddan oldingi 715 yili vafot etgan.

14:29 *Bizni urgan tayoq* — shoh Oxoz yoki Ossuriya shohlaridan biri nazarda tutilgan boʻlishi mumkin.

14:31 *Ey Filistlar…ey shahar!* — Filist xalqi quyidagi beshta shahar–davlatni barpo qilgan edi: Gʻazo, Ashdod, Ashqalon, Exron va Gat. Bu shaharlar Filistiyada, Oʻrta yer dengizi yaqinida joylashgan edi.

14:31 *Shimoldan* — shimol tomondan hujum qiladigan Ossuriya va Bobil xalqlariga ishora.

14:32 *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion*. 1:8 izohiga qarang.

15:1 *Moʻab* — 11:14 ning birinchi izohiga qarang.

15:1 *Xir shahri* — Xir–Xarasotning yana bir nomi. Bu shahar Moʻab yurtining poytaxti edi.

15:2-3 *…sochlari qirilgan…soqoli olingan…³…qanorga oʻrangan* — qanor dagʻal qoramtir mato boʻlib, echki yoki tuya junidan toʻqilgan. Sochni qirish, soqolni olish va qanorga oʻranib olish umidsizlikni va qaygʻuli holatni ifodalaydi.

15:9 *Dibondagi suvlar* — Arnon daryosi nazarda tutilgan boʻlishi mumkin.

15:9 *…Dibon…Dibon…* — Qumron qoʻlyozmalaridan, qadimiy yunoncha tarjimaning ba'zi qoʻlyozmalaridan va qadimiy lotincha tarjimadan. Ibroniycha matnda *…Dimon…Dimon…*.

16:1 *Sela shahri* — Oʻlik dengizdan qariyb 40 kilometr janubda, Edom yurtida joylashgan.

16:2 *Arnon soyligi* — Moʻab yurtining shimoliy chegarasi. Arnondagi soy gʻarb tomonga oqib, Oʻlik dengizga quyiladi.

16:7 *Xir–Xarasot* — 15:1 da aytib o‘tilgan Xir shahrining yana bir nomi (shu bobning 11–oyatida ham bor).

16:10 *Uzum siqish chuqurlari* — 5:2 izohiga qarang.

16:11 *Xir–Xarasot* — ibroniycha matnda bu nomning boshqa varianti *Xir–Xares*.

16:12 *…Sajdagohiga kelib, iltijolar qilsa…* — Mo‘ab xalqi o‘z xudosi Xamo‘shga iltijo qilardi (Sahroda 21:29 ga qarang).

17:1 *Damashq* — Oram yurtining poytaxti.

17:3 *Efrayim yurti* — 7:2 ning ikkinchi izohiga qarang.

17:5 *Rafa vodiysi* — Quddusdan bir necha kilometr janubi–g‘arbda joylashgan.

17:8 *Ashera* — Kan’ondagi xalqlar sajda qilgan hosildorlik xudosi bo‘lib, ayol qiyofasida tasavvur qilingan. Uning erkak jufti Baal edi. Asheraning tasvirlari baland ustun shaklida bo‘lib, yog‘ochdan yasalgan edi.

18:1 *Habashiston* — ibroniycha matnda *Kush* (11:11 ning ikkinchi izohiga qarang).

18:1 *Qanotlar guvullashiga to‘lgan yurt* — o‘sha joyda ko‘p uchragan qanotli hasharotlar yoki keyingi oyatda aytib o‘tilgan kemalarning yelkanlari nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin.

19:9 *Zig‘ir tolasiga ishlov beradiganlar…Oq mato to‘qiydiganlar…* — zig‘ir va paxta Nil daryosi bo‘ylarida ekilar edi. Mana shu mahsulotlardan ishlab chiqariladigan matolar Misr iqtisodining asosiy qismini tashkil qilar edi.

19:11 *Zo‘van* — Nil deltasida joylashgan Misrning bir muhim shahri.

19:13 *Nuf* — Memfis nomi bilan ham ma’lum. Memfis shahri Misr shimoliy hududining markazi bo‘lib, Misr tarixida birmuncha vaqt poytaxt ham bo‘lgan edi.

19:15 *Na boshi, na quyrug‘i, na xurmosi, na qamishi* — 9:14 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

19:18 *ibroniy tili* — ibroniycha matnda *Kan’on tili*. Bu o‘rinda qadimgi ibroniycha nazarda tutilgan.

19:18 *“Quyosh shahri”* — Qumron qo‘lyozmalaridan, ba’zi ibroniy qo‘lyozmalaridan va qadimiy lotincha tarjimadan. Ibroniycha matnda *“Vayrona shahar”*. “Quyosh shahri” nomi ostida Geliopol shahri nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin. Bu shahar hozirgi Qohiradan qariyb 11 kilometr shimoli–sharqda, Nil daryosi bo‘yida joylashgan.

20:1 *Ossuriya shohi Sargon…Ashdodni qo‘lga oldi* — Sargon II Filistlarning bu shahrini miloddan oldingi 711 yilda bosib olgan.

20:2 *qanor* — dag‘al qoramtir mato bo‘lib, echki yoki tuya junidan to‘qilgan. Qanorga o‘ranib olish umidsizlikni va qayg‘uli holatni ifodalaydi. Ko‘pincha bu harakat Xudodan kechirim so‘rab ibodat qilish va Undan madad tilash bilan birgalikda amalga oshirilgan. Payg‘ambarlarning odatdagi kiyimi ana shu matodan tikilgan bo‘lishi ham mumkin (4 Shohlar 1:8, Zakariyo 13:4 ga qarang).

20:3 *Habashiston* — ibroniycha matnda *Kush* (11:11 ning ikkinchi izohiga qarang). Shu bobning 4, 5–oyatlarida ham bor.

20:6 *qirg‘oqdagi yurtning aholisi* — Filist xalqi nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin.

21:1 *Dengiz bo‘yidagi sahro* — Bobil yurti nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin (shu bobning 9–oyatiga qarang). Bobil yurtining Fors qo‘ltig‘idagi janubiy qismi ba’zan “dengiz bo‘yidagi yer” deb atalgan. Xudo Bobil yurtiga dahshatli jazo berishi muqarrar edi. Shu bois payg‘ambar bu yurtni sahro deb atagan bo‘lishi mumkin.

21:2 *...Elam...Midiya...* — 11:11 ning uchinchi izohiga va 13:17 ning izohiga qarang. Mana shu ikki shohlik Fors lashkari bilan birlashib, Bobilga hujum qildilar va uni mag‘lub etdilar (shu bobning 9–oyatiga va o‘sha oyatning izohiga qarang).

21:8 *...qorovul sherday o‘kirib qoldi* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *...sher o‘kirib qoldi*. Qumron qo‘lyozmalarida, qadimiy suryoniycha tarjimada *...qorovul o‘kirib qoldi*.

21:9 *...Bobil quladi...* — Bobil shahrini miloddan oldingi 539 yilda shoh Kurush boshchiligida Midiya va Fors lashkarlari bosib olgani nazarda tutilgan. Shoh Kurush yana Kir ismi bilan tanilgan.

21:10 *yanchilgan* — donni boshoqdan ajratish jarayoni yanchish deyiladi. Qadimgi Yaqin Sharqda bu ish don boshoqlarini tayoq bilan urish, ustidan tepkilash yoki xo‘ptir yurgizish orqali bajarilgan (xo‘ptir — ostiga uchli tosh yoki temir mahkamlangan og‘ir taxta). Yanchish so‘zi ko‘pincha Eski Ahdda hukmga yoki urushda halokatga duchor bo‘lishga nisbatan ko‘chma ma’noda ishlatilgan.

21:11 *Dumax* — Arabiston sahrosining shimolida joylashgan voha yoki Edom yurti nazarda tutilgan bo‘lsa kerak.

21:11 *Seir* — Edom yurtiga qarashli bo‘lgan tog‘li yerlar (yana 11:14 ning birinchi izohiga qarang).

21:13 *Dedon* — Arabiston yarim orolining shimoli–g‘arbida joylashgan shahar va uning atrofidagi hudud.

21:14 *Temo* — Arabiston yarim orolining shimolidagi yerlar.

21:16 *Kedar* — Arabiston sahrosidagi yerlar.

22:1 *Vahiy vodiysi* — Quddus shahri nazarda tutilgan.

22:1 *...tomlarga chiqib...* — u zamonlarda uylarning tomi tekis bo‘lib, odamlar tomga chiqib dam olishardi.

22:6 *Elam* — 11:11 ning uchinchi izohiga qarang.

22:8 *“Lubnon o‘rmoni” degan uy* — shoh Sulaymon tomonidan qurilgan bo‘lib, qalqonlar saqlanadigan ombor edi (3 Shohlar 7:2, 10:16-17 ga qarang).

22:11 *...ikki devor o‘rtasida...* — ba’zi shaharlarning tashqi va ichki devorlari bo‘lgan. Bu devorlarning oralig‘ida bo‘sh joylar bo‘lgan. Dushman tashqi devorni buzgan taqdirda ham, ichki devor shaharni himoya qilgan.

22:12 *Sochlaringizni qirib, qanorga o‘raning...* — qanor dag‘al qoramtir mato bo‘lib, echki yoki tuya junidan to‘qilgan. Sochni qirish va qanorga o‘ranib olish umidsizlikni va qayg‘uli holatni ifodalaydi.

22:15 *Shavna* — Yahudoning, ya’ni janubiy shohlikning shohi Hizqiyo hukmronligi davrida xizmat qilgan (36:1-37:7 ga qarang).

22:20 *Eliyaqim* — Yahudoning, ya'ni janubiy shohlikning shohi Hizqiyo hukmronligi davrida xizmat qilgan (36:1-37:7 ga qarang).

22:22 *Dovud xonadonining kaliti* — ya'ni Dovud avlodidan bo'lgan shoh Hizqiyo Eliyaqimga bergan yuksak hokimiyat. Bu o'rinda shohning huzuriga kirishga ruxsat beradigan hokimiyatga ishora qilinayotgan bo'lishi mumkin.

23:1 *Tir* — Finikiyada muhim ahamiyatga ega bo'lgan shahar. Bu shahar Isroildan shimolda, O'rta yer dengizi bo'yida joylashgan edi. Bugungi kunda bu yer Livan mamlakatining janubiy hududini tashkil qiladi. Shaharning bir qismi qo'rg'on bo'lib, bu qo'rg'on kichkina orolda, dengiz qirg'og'idan uzoq bo'lmagan joyda qurilgan edi.

23:1 *Tarshish* — 2:16 izohiga qarang.

23:1 *Kipr* — ibroniycha matnda *Kittim*, Kiprning qadimgi nomi (shu bobning 12–oyatida ham bor).

23:2 *Sidon* — Finikiyada muhim ahamiyatga ega bo'lgan shahar. Bu shahar Tir shahridan shimolda, O'rta yer dengizi bo'yida joylashgan edi. Bugungi kunda bu shahar Livan mamlakatining janubiy hududini tashkil qiladi.

23:3 *Shixor* — Nil daryosining sharqiy irmog'i nazarda tutilgan bo'lishi mumkin.

23:10 *Nil bo'yidagi dehqonlar kabi, Yerlaringga ishlov ber* — Qumron qo'lyozmalaridan va qadimiy yunoncha tarjimaning ba'zi qo'lyozmalaridan. Ibroniycha matnda *Nilni kechib o'tganday, yurtingizni kesib o'tinglar*.

23:10 *...Yerlaringga ishlov ber...bandargohing yo'q endi* — Tarshishlik savdogarlar O'rta yer dengizi bo'yidagi bandargoh shahar Tirda tijorat qilib, ko'p foyda olishardi. Payg'ambar o'sha savdogarlarga, endi dehqon bo'linglar, deb maslahat beradi, chunki Tir vayron bo'ladi. To'liqroq ma'lumotga ega bo'lish uchun lug'atdagi BANDARGOH so'ziga qarang.

23:13 *Bobil* — ibroniycha matnda *Xaldey*, o'sha vaqtda Bobil yurti shu nom bilan ham atalardi.

23:14 *boshpanangiz* — Tir shahri nazarda tutilgan (shu bobning 10–oyatiga berilgan ikkinchi izohga qarang).

25:6 *Bu tog'* — Quddusdagi Sion tog'iga ishora. 4:5 ning ikkinchi izohiga qarang.

25:10 *Mo'ab* — 11:14 ning birinchi izohiga qarang.

26:4 *Uning O'zi* — ibroniycha matnda *Yah Yahveh*. Ibroniychada *Yahveh* Xudoning ismidir, *Yah* — *Yahveh*ning qisqa shakli.

27:1 *Levitan* — Kan'on xalqlarining qadimiy afsonalarida uchraydigan maxluq. Levitan halokat keltiruvchi dengiz kuchlarining va o'rnatilgan barcha tartibga tahdid soladigan buzg'unchi kuchlarning ramzidir. Muqaddas Kitobda Xudoning Levitan ustidan qozongan g'alabasi Uning kuch–qudrati ramzidir. Zotan, Xudo butun borliq ustidan, shuningdek, O'z xalqining dushmanlari ustidan g'olib bo'lgan qudratli Hukmdordir.

27:2 *uzumzor* — 5:1-7 ga qarang.

27:9 *Ashera* — 17:8 izohiga qarang.

27:12 *Misr chegarasidagi irmoq* — Sinay yarim orolining shimoli–sharqidagi Arish

soyligi yoki Nil daryosining sharqiy irmog‘i nazarda tutilgan (yana Ibtido 15:18, Sahroda 34:5 va Yoshua 13:3, 15:4, 47 ga qarang).

27:12 *yanchadi* — 21:10 izohiga qarang. Isroil xalqi boshqa xalqlar orasiga tarqalib ketgandan keyin, Xudo o‘sha xalqlarni hukm qiladi. Dehqon donni boshoqdan ajratib yig‘ib olganday, Xudo ham O‘z xalqini o‘sha xalqlar orasidan ajratib yig‘ib oladi.

27:13 *Quddusdagi muqaddas tog‘* — Quddusdagi Sion tog‘iga ishora. 4:5 ning ikkinchi izohiga qarang.

28:1 *Efrayim* — 7:2 ning ikkinchi izohiga qarang.

28:2 *...Rabbiyning kuchli bir bahodiri bor* — Ossuriya shohiga ishora.

28:10 *...bidir–bidir qilasan, Go‘dakday guvranasan* — ibroniycha matnda *...sav lasav, sav lasav, qav laqav, qav laqav*. Bu tovushlar chaqaloqlar og‘zidan chiqadigan ma’nosiz tovushlarga o‘xshaydi. Ossuriya xalqi yurtni bosib olgandan keyin, Ossuriyaliklarning tili xalqning qulog‘iga shu tovushlar kabi eshitiladi (shu bobning 11–oyati izohiga qarang).

28:11 *...O‘zga til...tushunarsiz sheva...* — Isroil xalqini bosib olgan Ossuriyaliklarning tili nazarda tutilgan. Isroil xalqi ularning tilini tushunmas edi.

28:13 *...mazmunsiz so‘zlar...Go‘dakning guvranishi...* — ibroniycha matnda *...sav lasav, sav lasav, qav laqav, qav laqav...* (shu bobning 10–oyati izohiga qarang).

28:15 *O‘liklar diyori* — ibroniycha matnda *Sheo‘l* (shu bobning 18–oyatida ham bor). 5:14 izohiga qarang.

28:16 *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion*. 1:8 izohiga qarang.

28:16 *tamal toshi* — qadimgi paytlarda qurilishda poydevor uchun qo‘yilgan birinchi va eng muhim tosh hisoblanardi. Bu tosh poydevorning bir burchagini hosil qilib, binoning qolgan qismi o‘sha toshning joylashuvi bo‘yicha qurilardi.

28:20 *Yotgani to‘shagingiz...ensizlik qiladi* — bu ibroniycha maqol bo‘lib, odamlarning ishonchli deb bilgan narsalari ularning xotirjam yashashlariga omil bo‘la olmasligini ta’kidlaydi (shu bobning 15, 18–oyatlariga qarang).

28:21 *Perazim tog‘idagiday...* — 2 Shohlar 5:17-21 ga qarang.

28:21 *Givon vodiysidagiday...* — Yoshua 10:7-14 ga qarang.

28:28 *...yanchilmaydi* — 21:10 izohiga qarang.

29:1 *Oriyol* — Sion tog‘i, ya’ni Quddusning she’riy nomi (4:5 ning ikkinchi izohiga qarang). Oriyol nomi ibroniychadagi *qurbongoh* so‘ziga ohangdosh.

29:2 *qurbongoh* — ibroniycha matnda *Oriyol*. Shu bobning 1–oyati izohiga qarang.

29:3 *qamal inshootlari* — qadimgi davrlarda dushmanlar devor bilan o‘ralgan shaharga hujum qilayotganlarida, ko‘pincha devor yoniga baland qurilmalar yasaganlar. Shu yo‘l bilan ular shaharni himoya qilayotgan xalqqa hujum qilish uchun devorni buzishga yoki oshib o‘tishga qulay imkoniyat yaratganlar.

29:7 *Quddus* — ibroniycha matnda *Oriyol*. Shu bobning 1–oyati izohiga qarang.

29:11 *o‘rama qog‘oz* — papirus yoki oshlangan teridan qilingan uzun o‘ralgan qog‘oz. Qadimgi paytlarda kitoblar odatda o‘rama qog‘oz shaklida bo‘lgan.

29:17 *Lubnon o‘rmoni* — Lubnon tog‘larida o‘sadigan sadr daraxtlari dunyoning o‘sha hududidagi eng katta daraxt turlaridan edi.

30:4 *…Zo‘van…Xanes…* — Zo‘van Misrning shimoli–sharqida, Xanes Misrning janubida joylashgan shaharlar edi.

30:7 *Rahob* — Levitanning yana bir ismi, Kan’on xalqlarining qadimiy afsonalarida uchraydigan maxluq (27:1 izohiga qarang). Bu o‘rinda Rahob Misrning she’riy nomi sifatida kelgan.

30:27 *…Qalin bulut ichida…* — yoki *…Qattiq hukm bilan…*.

30:29 *muqaddas bayram* — Fisih ziyofati nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin. Bu ziyofat Isroil xalqining Misrdagi qullikdan ozod bo‘lganini nishonlash uchun o‘tkazilardi (Chiqish 12:1-42 ga qarang).

30:29 *Egamizning tog‘i* — Quddusdagi Sion tog‘iga ishora. 4:5 ning ikkinchi izohiga qarang.

30:33 *Tofat* — Quddusga yaqin bo‘lgan qabriston (Yeremiyo 7:32, 19:6, 11 ga qarang). Bir vaqtlar u yerda butparastlarning sajdagohi bo‘lgan. O‘sha sajdagohda odamlar o‘z bolalarini Ommon xalqining xudosi Mo‘laxga qurbonlik qilib, olovda kuydirishgan (4 Shohlar 23:10, Yeremiyo 7:30-31 ga qarang).

31:9 *Ossuriyaning suyangan qoyasi* — Ossuriya shohi nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin.

33:4 *chigirtkalar* — ba’zan to‘da–to‘da bo‘lib kelib, dalalardagi hosilga katta zarar yetkazadigan hasharot.

33:5 *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion* (shu bobning 14–oyatida ham bor). 1:8 izohiga qarang.

33:7 *Tinchlik elchilari* — 36:1-3, 22 ga qarang.

33:8 *…shaharlar vayron bo‘ldi…* — ibroniycha matndan. Qumron qo‘lyozmalarida *ahdlarning guvohlari xor bo‘ldi*.

33:9 *Sharon tekisligi* — O‘rta yer dengizi bo‘yidagi, Karmil tog‘i (shimol tomonda) va Yaffa shahri (janub tomonda) orasidagi unumdor tekislik.

33:9 *Bashan* — Jalila ko‘lining shimoli–sharqidagi hudud.

33:23 *Kemangizning machtasi mustahkam emas…yelkani yoyilmaydi* — ko‘chma ma’nodagi gap bo‘lib, Yahudo xalqi va Quddus aholisining ojizligini, Xudoning yordamiga muhtoj ekanliklarini ko‘rsatadi (shu bobning 22–oyatiga qarang).

34:4 *o‘rama qog‘oz* — 29:11 izohiga qarang.

34:5 *…samolarda Mening qilichim paydo bo‘ldi* — Qumron qo‘lyozmalaridan. Ibroniycha matnda *…samolarda Mening qilichim to‘yib qon ichdi* yoki *…samolarda Mening qilichim qonga bo‘kdi*.

34:5 *Edom* — 11:14 ning birinchi izohiga qarang.

34:6 *Bozrax shahri* — Edom yurtining poytaxti.

34:8 *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion*. 1:8 izohiga qarang.

34:11 *…boyqushlaru kirpilar…Ukki…* — ibroniycha matnda aytib o‘tilgan bu hayvonlarning qanday hayvon ekanligi bahsli.

34:15 *ilonlar* — ibroniycha matnda aytib o‘tilgan bu hayvon qanday hayvon ekanligi bahsli.

34:16 *Egamizning kitobi* — Xudo Ishayoga bergan bashoratlar nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin.

35:2 *Sharon tekisligi* — 33:9 ning birinchi izohiga qarang.

35:8 *Bu yo‘ldan…adashmaydi* — yoki *Idroksizlar hech qachon bu yo‘ldan yura olmaydi*.

35:10 *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion*. 1:8 izohiga qarang.

36:1 *Hizqiyo hukmronligining o‘n to‘rtinchi yili* — miloddan oldingi 701 yil.

36:1 *Ossuriya shohi Sanxariv* — miloddan oldingi 705-681 yillarda Ossuriyada hukmronlik qilgan.

36:2 *Laxish shahri* — Quddusdan qariyb 35 kilometr janubi–g‘arbda joylashgan edi.

36:7 *sajdagoh* — ibroniycha matnda *bamax*, ya’ni “tepalik”. Kan’on xudolariga topinadigan joylar *bamax* deb atalardi. Odatda bu sajdagohlar tepaliklarda joylashgan bo‘lib, u yerda Kan’on xudolarining tasvirlari va qurbonliklar keltirish uchun qurbongoh bo‘lardi. Ba’zi bir paytlarda odamlar mana shu mahalliy sajdagohlarda Egamizga sajda qilardilar.

36:7 *Axir, Hizqiyo…aytgan ekan–ku!* — Hizqiyoning qilgan ishlaridan Xudo mamnun edi (Qonunlar 12:2-7, 4 Shohlar 18:3-5 ga qarang). Ammo Ossuriya shohi bu so‘zlarni Yahudo xalqini va Quddus aholisini Hizqiyoga qarshi qo‘zg‘atish niyatida, Xudoga itoat qilmaslikka va ishonmaslikka undash maqsadida aytgan edi (shu bobning 15, 18-20–oyatlariga qarang).

36:9 *otliqlar* — bu o‘rindagi ibroniycha so‘z *aravakashlar* ma’nosini ham ifodalashi mumkin.

36:11 *oramiycha* — oramiy tili o‘sha davrda tijoratda va xalqaro diplomatik doiralarda ishlatilgan.

36:19 *Xomat…Arpad…Sefarvayim…* — Xomat va Arpad hozirgi Suriyaning shimolida joylashgan edi. Sefarvayim shahrining qayerda joylashgani bahsli.

36:19 *Samariya* — Isroilning, ya’ni shimoliy shohlikning poytaxti bo‘lib, Ossuriya tomonidan bosib olingan.

37:1 *…qayg‘udan liboslarini yirtdi. Qanorga o‘ranib…* — qanor dag‘al qoramtir mato bo‘lib, echki yoki tuya junidan to‘qilgan. Kiyimlarni yirtish va qanorga o‘ranib olish umidsizlikni va qayg‘uli holatni ifodalaydi. Ko‘pincha bu harakat Xudodan kechirim so‘rab ibodat qilish va Undan madad tilash bilan birgalikda amalga oshirilgan.

37:8 *Laxish shahri* — 36:2 izohiga qarang.

37:9-10 *Habashiston* — ibroniycha matnda *Kush* (11:11 ning ikkinchi izohiga qarang).

37:16 *ikki karub* — qanotli samoviy mavjudotlarning haykallari. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi KARUB, KARUBLAR so‘ziga qarang.

37:20 *…Sening tanho Egamiz ekaningni bilishsin* — ibroniycha matndan. Qumron qo‘lyozmalarida *Sening tanho Xudo ekaningni bilishsin, ey Egamiz* (yana 4 Shohlar 19:19 ga qarang).

37:22 *Bokira qiz* — she'riy usul bo'lib, shahar yoki yurt ahliga ishora qiladi.

37:22 *Sion* — 1:8 izohiga qarang.

37:27 *Tomlarda o'sgan maysalar* — qadimgi Isroilda odatda uylarning tomlari tuproqdan bo'lib, shibbalangan. Ba'zan tomlarda maysalar o'sib chiqar, lekin quyosh va garmsel ta'sirida tez qurib qolar edi.

37:27 *Tomlarda o'sgan maysalarga o'xshab, Yetilmasdan oldin qurib qoldilar* — Qumron qo'lyozmalaridan (yana 4 Shohlar 19:26 ga qarang). Ibroniycha matnda *Ular tomlarda o'sgan maysalarday, hali hosili yetilmagan dala kabidir*.

37:29 *…Men burningdan halqamni, Og'zingdan suvlig'imni o'tkazaman* — Ossuriyaliklar asirlarga shunday munosabatda bo'lishar edi.

37:33 *…shahar devoriga qiyalatib tuproq uydirmaydi* — qadimgi davrlarda dushmanlar devor bilan o'ralgan shaharga hujum qilayotganlarida, ko'pincha devorga qiyalatib tuproq uyganlar. Shu yo'l bilan ular shaharni himoya qilayotgan xalqqa hujum qilish uchun devorni buzishga yoki oshib o'tishga qulay imkoniyat yaratganlar.

37:37 *Naynavo* — Nineviya nomi bilan ham ma'lum.

37:38 *Ararat yurti* — keyinchalik Armaniston tarkibiga kirgan (hozirda Turkiyaning bir qismini tashkil qiladi).

37:38 *…Isarxaddo'n shoh bo'ldi* — miloddan oldingi 681-669 yillarda Ossuriyada hukmronlik qilgan.

38:8 *Oxozning zinapoyasi* — arxeologik topilmalarga asoslangan holda aytish mumkinki, bu zinapoya vaqtni ko'rsatadigan maxsus qurilma sifatida xizmat qilar edi.

38:10 *O'liklar diyori* — ibroniycha matnda *Sheo'l*. 5:14 izohiga qarang.

38:15 *…itoat etib yuraman* — yoki *…men sekin yuraman*.

38:17 *…meni saqlading…* — qadimiy yunoncha va lotincha tarjimalardan. Ibroniycha matnda *…meni sevding…*.

38:18 *o'liklar diyori* — ibroniycha matnda *Sheo'l* (5:14 izohiga qarang). Qadimda Isroil xalqining tasavvuriga ko'ra, *Sheo'l*da Xudo bilan muloqot qilishning aslo iloji yo'q edi.

38:21-22 *Ishayo shunday degan edi…[22]…Hizqiyo…deb so'ragandi* — shu bobning 21-22–oyatlaridagi voqealar 6 va 7–oyatlaridagi voqealar orasida yuz bergan. 4 Shohlar 20:6-9 ga qarang.

39:1 *Marduxbaladon* — miloddan oldingi 722-710 va 704-703 yillarda Bobilda hukmronlik qilgan.

40:3 *Bir ovoz yangramoqda: "Cho'lda…* — yoki *Cho'lda bir ovoz shunday hayqirmoqda: "…*.

40:6 *…Ikkinchisi…so'radi* — ibroniycha matndan so'zma–so'z tarjimasi *…U…so'radi*. Qumron qo'lyozmalarida *…Men…so'radim*.

40:9 *Ey xushxabar keltirgan Quddus…Ey xushxabar keltirgan Sion…* — yoki *Ey xushxabarni Quddusga olib kelgan…Ey xushxabarni Sionga olib kelgan…*.

40:13 *Egamizning Ruhi* — Ibtido 1:2 ga qarang.

41:2 *sharqdan g'olib shoh* — Fors shohi Kurush nazarda tutilgan bo'lishi mumkin

(44:28, 45:1, 48:14 ga qarang). U Kir ismi bilan ham tanilgan bo‘lib, miloddan oldingi 559-530 yillarda Fors shohligida hukmronlik qilgan. Miloddan oldingi 539 yilda Bobilni bosib olib, keyingi yili yahudiylarga Bobildan o‘z yurtlariga qaytishlariga ruxsat bergan (Ezra 1:1-4 ga qarang).

41:15 *bug‘doy yanchadigan xo‘ptir* — ostiga uchli tosh yoki temir mahkamlangan og‘ir taxta. Donni boshoqdan ajratib olish uchun o‘rilib xirmonga yoyilgan bug‘doy ustidan xo‘ptir yurgizilardi. Yana 21:10 izohiga qarang.

41:15 *...tog‘lar...Tepaliklar...* — Isroil xalqining kuchli va mag‘rur dushmanlariga ishora.

41:19 *mirta butalari* — doim yashil, xushbo‘y o‘simlik.

41:25 *bir yetakchi* — Fors shohi Kurush nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin (41:2 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang).

42:5 *...uni yoyganman...* — 40:22 va Zabur 103:2 ga qarang.

42:11 *Kedar* — Arabiston sahrosidagi yerlar.

42:11 *Sela* — Edom yurtidagi bu shahar, O‘lik dengizdan qariyb 40 kilometr janubda, baland yassi tog‘da joylashgan.

42:15 *...quruq yerga...* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *...orollarga....* Irmoqlar qurib borgani sari, ularning o‘rtasida quruqlik hosil bo‘lib, orollarga o‘xshab ko‘rinardi.

42:21 *O‘z adolati haqi, Egamiz...istadi* — Chiqish 34:29-32, Qonunlar 4:5-8 ga qarang.

42:22 *...bu xalq talon–taroj qilingan...* — Ossuriya va Bobil xalqlari Isroil xalqini talon–taroj qilgani nazarda tutilgan (10:5-11, 39:5-7 ga qarang).

43:3 *Habashiston* — ibroniycha matnda *Kush* (11:11 ning ikkinchi izohiga qarang).

43:3 *Savo* — bu yurt Arabiston yarim orolining janubida yoki Afrikada, Qizil dengizning g‘arbiy bo‘yida joylashgan bo‘lishi mumkin.

43:14 *Bobilliklar* — ibroniycha matnda *Xaldeylar*, o‘sha vaqtda Bobilliklar shu nom bilan ham atalardi.

43:16 *Men dengizni bo‘lib...so‘qmoq qildim* — Chiqish 14:1-31 ga qarang.

43:27 *eng katta bobong* — Ibrohim yoki Yoqub nazarda tutilgan.

44:2 *aziz Isroil* — ibroniycha matnda *Yoshurun*, Isroilni erkalab aytilgan nom.

44:5 *Isroil xalqi* — ibroniycha matnda *Yoqub*, Isroil xalqini shu nom bilan ham atashardi.

44:24 *...samolarni yoyganman* — 40:22 va Zabur 103:2 ga qarang.

44:28 *Kurush* — 41:2 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

45:1 *Kurush* — 41:2 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

45:2 *Tog‘lar* — Qumron qo‘lyozmalaridan va qadimiy yunoncha tarjimadan.

45:14 *Habashiston* — ibroniycha matnda *Kush* (11:11 ning ikkinchi izohiga qarang).

45:14 *Savo yurti* — 43:3 ning ikkinchi izohiga qarang.

45:23 *O‘zim haqim ont ichdim...* — qadimgi Yaqin Sharqda odamlar aytgan gapini

tasdiqlash uchun, o‘zlaridan buyukroq zot nomini yoki narsani o‘rtaga qo‘yib qasam ichishar edi. Xudo borliqdagi eng buyuk Zot bo‘lgani uchun, U aytgan so‘zining qat’iy ekanligini ko‘rsatish maqsadida O‘z nomini o‘rtaga qo‘yib qasam ichdi.

46:1 *Xudo Bel…xudo Navo…* — Bel Bobilning bosh xudosi edi (Mardux ismi bilan ham tanilgan). Navo (Marduxning o‘g‘li) ham Bobil xalqi uchun muhim bir xudo edi.

46:11 *Sharqdan…chaqiryapman* — Fors shohi Kurush nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin (41:2 izohiga qarang).

46:13 *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion*. 1:8 izohiga qarang.

47:1 *bokira qiz* — 37:22 ning birinchi izohiga qarang.

47:1 *qiz Bobil* — ibroniycha matnda *qiz Xaldey*, ya’ni Xaldeylar. O‘sha vaqtda Bobilliklar shu nom bilan ham atalardi.

47:2 *…daryolardan kechib o‘t* — bu o‘rinda ba’zi Bobilliklarning asirga olinganligiga ishora bo‘lishi mumkin.

47:5 *qiz Bobil* — ibroniycha matnda *qiz Xaldey*, ya’ni Xaldeylar. O‘sha vaqtda Bobilliklar shu nom bilan ham atalardi.

47:14 *Isinish uchun…gulxani bo‘lmaydi* — 44:15-17 ga qarang.

48:2 *muqaddas shahar* — ya’ni Quddus.

48:13 *zaminning poydevori* — qadimda Isroil xalqining tasavvuriga ko‘ra, yer tep–tekis bo‘lib, yer ostida buyuk dengiz bor edi, dengiz tubida o‘rnatilgan ulkan ustunlar yerni ushlab turardi. Bu ustunlar dengiz tubidagi poydevorga tayanardi.

48:14 *Kurush* — 41:2 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

48:14 *Bobilliklar* — ibroniycha matnda *Xaldeylar*, o‘sha vaqtda Bobilliklar shu nom bilan ham atalardi (shu bobning 20–oyatida ham bor).

48:16 *Mana endi Egamiz Rabbiy meni Hamda O‘z Ruhini yubormoqda* — bu so‘zlarni aytgan odam Ishayo yoki Egamiz tanlagan qul (42:1-9 ga qarang) yoxud shoh Kurush (shu bobning 14-15–oyatlariga qarang) bo‘lishi mumkin.

48:21 *Xudo ular uchun qoyadan suv chiqardi* — Chiqish 17:1-7 ga qarang.

49:7 *xalqlar* — yoki *xalq*.

49:10 *garmsel* — issiq shamol.

49:12 *Sinim yurti* — bu yurtning qayerda joylashgani ma’lum emas, ammo bundan oldingi misrada shimol va g‘arb aytib o‘tilgani uchun bu joy uzoqroqda, sharqda yoki janubda joylashgan bo‘lishi mumkin. Qumron qo‘lyozmalarida *Savanay*, ya’ni hozirgi Misrning Asvon shahri.

49:14 *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion*. 1:8 izohiga qarang.

49:24 *zolim* — Qumron qo‘lyozmalaridan, qadimiy suryoniycha va lotincha tarjimalardan (yana shu bobning 25–oyatiga qarang). Ibroniycha matnda *solih*.

51:3 *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion* (shu bobning 11, 16–oyatlarida ham bor). 1:8 izohiga qarang.

51:9 *Rahob* — Levitanning yana bir ismi, Kan’on xalqlarining qadimiy afsonalarida

uchraydigan maxluq (30:7 oyatga va 27:1 izohiga qarang). Bu o‘rinda Rahob Misrning she’riy nomi sifatida kelgan.

51:13 *Samolarni yoygan…* — 40:22 va Zabur 103:2 ga qarang.

51:13 *zamin poydevori* — 48:13 izohiga qarang.

51:17 *g‘azab kosasi* — Xudo g‘azabining ramzi bo‘lgan sharob kosasi. Mana shu sharobdan mast bo‘lish Xudoning hukmiga duchor bo‘lishni bildiradi.

51:19 *Kim seni yupata oladi?!* — Qumron qo‘lyozmalaridan, qadimiy yunoncha, suryoniycha va lotincha tarjimalardan. Ibroniycha matnda *Qanday qilib men seni yupata olaman?!*

52:2 *qiz* — 37:22 ning birinchi izohiga qarang.

52:7 *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion* (shu bobning 8–oyatida ham bor). 1:8 izohiga qarang.

52:11 *…Egamizning muqaddas ashyolarini ko‘taradiganlar…* — ruhoniylar va levilarga ishora. Bobil xalqi Quddusni bosib olganda, Ma’badning muqaddas ashyolarini o‘z yurtiga olib ketgandi (4 Shohlar 25:13-15 ga qarang). Endi ruhoniylar va levilar muqaddas ashyolarni Quddusga qaytarib olib keladi (Ezra 1:7-11 ga qarang).

52:14 *…uning oldida…* — ba’zi ibroniy qo‘lyozmalaridan, qadimiy suryoniycha tarjimadan. Ibroniycha matnda *…sizning oldingizda….*

53:1 *Biz* — shu bobda Ishayo payg‘ambar o‘z xalqi nomidan gapirmoqda.

53:8 *Hukm bilan, kuch bilan…* — yoki *Adolatsiz hukm bilan….*

53:8 *Uning nasli haqida kim o‘ylaydi?* — yoki *Uning nasli orasidagi odamlardan kim uning taqdiri haqida qayg‘urdi?* yoxud *Uning nasli orasidagi odamlardan quyidagilarni kim tushundi?*

53:8 *Xalqimiz* — ibroniycha matnda *Xalqim*, shu bobning 1–oyati izohiga qarang.

53:11 *Chekkan azoblarining natijasini ko‘rib…* — ibroniycha matndan. Qumron qo‘lyozmalarida *Azoblar chekkandan keyin yorug‘lik ko‘rib* (ya’ni *u yashaydi*).

53:12 *…buyuklar qatorida unga ulush beraman…* — 49:7, 52:15 ga qarang.

55:13 *mirta butalari* — doim yashil, xushbo‘y o‘simlik.

56:7 *muqaddas tog‘im* — Quddusdagi Sion tog‘iga ishora. 4:5 ning ikkinchi izohiga qarang.

57:5 *Har bir yam–yashil daraxt ostida…* — mahalliy xudolarga qurbonlik keltiriladigan joylar nazarda tutilgan (1:29 izohiga qarang).

57:5 *…Shahvat bilan gunohga berildingiz!* — mahalliy sajdagohlarda fahsh orqali bajariladigan diniy marosimlarga ishora (yana shu bobning 7-8–oyatlariga qarang).

57:8 *kesaki* — eshik o‘rnatilgan chorcho‘p.

57:9 *O‘z shohingiz* — yoki *Mo‘lax*, Ommon xalqining xudosi.

57:9 *o‘liklar diyori* — ibroniycha matnda *Sheo‘l*. 5:14 izohiga qarang.

57:13 *Mening muqaddas tog‘im* — Quddusdagi Sion tog‘iga ishora. 4:5 ning ikkinchi izohiga qarang.

58:5 *...Qanor yoyib, kul sochib ustiga yotasiz* — qanor dag‘al qoramtir mato bo‘lib, echki yoki tuya junidan to‘qilgan. Qanor yoyib, kul sochib ustiga yotish umidsizlikni va qayg‘uli holatni ifodalaydi. Ko‘pincha bu harakat Xudodan kechirim so‘rab ibodat qilish va Undan madad tilash bilan birgalikda amalga oshirilgan. Mazkur oyatda odamlar bu udumni oddiy marosim sifatida bajarganlari, lekin gunohlari uchun chin dildan tavba qilmaganlari, Xudodan yordam so‘ramaganlari ko‘rsatilgan.

59:20 *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion*. 1:8 izohiga qarang.

60:6 *Midiyon, Efax* — Midiyon ko‘chmanchi bir qabilaning bobokaloni bo‘lgan. Bu qabila hozirgi Aqaba qo‘ltig‘ining sharqidagi Arabiston sahrosida yashagan. Efax Midiyon qabilasining bir urug‘i edi.

60:6 *Shava yurti* — Arabiston yarim orolining janubi–g‘arb tomonida bo‘lgani ehtimoldan holi emas. Shava malikasi shoh Sulaymonga hadyalar olib kelgan edi (3 Shohlar 10:1-13 ga qarang).

60:7 *Kedar...Navayot...* — Arabiston yarim orolining shimolidagi yerlar.

60:9 *Tarshish* — 2:16 izohiga qarang.

61:3 *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion*. 1:8 izohiga qarang.

62:11 *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion*. 1:8 izohiga qarang.

63:1 *Bozrax shahri* — Edom yurtining poytaxti.

63:2 *chuqurda uzum ezgan odam* — qadimgi paytlarda odamlar uzumni qoyatoshga o‘yilgan chuqurga yoki tuproqdan qazilgan, tubiga va atrofiga zich qilib tosh terilgan chuqurga solib, sharbatini siqib olish uchun oyoqlari bilan ezardilar. Sharbat o‘sha chuqurdan yana boshqa bir chuqurga oqib tushardi. Uzum ezish Muqaddas Kitobda ko‘pincha Xudoning odamlar ustidan chiqaradigan hukmiga nisbatan ko‘chma ma’noda ishlatilgan.

63:16 *Yoqub* — ibroniycha matnda *Isroil*, Yoqubning yana bir ismi (Ibtido 32:27-28 ga qarang).

63:18 *Sening muqaddas maskaningga...faqat oz vaqt egalik qildik. Endi esa dushmanlarimiz U yerni oyoq osti qilib tashladi* — yoki *Yurtga...faqat oz vaqt egalik qildik. Endi esa dushmanlarimiz Sening muqaddas maskaningni oyoq osti qilib tashladi*.

64:10 *Muqaddas shaharlar* — Isroil yurti Xudoga tegishli bo‘lgani uchun, undagi barcha shaharlar muqaddas hisoblangan (14:25, Zabur 77:54 ga qarang).

65:3 *Sajdagoh bog‘lar* — 1:29 izohiga qarang.

65:3 *G‘isht qurbongohlar* — Tavrot qonuniga ko‘ra, Xudoning xalqi faqatgina loydan yoki yo‘nilmagan toshdan qurbongohlar yasashi kerak edi (Chiqish 20:24-25, Qonunlar 27:5-6, Yoshua 8:31 ga qarang).

65:4 *...arvohlarga maslahat soladi* — Qonunlar 18:9-14 ga qarang.

65:9 *Isroil* — ibroniycha matnda *Yoqub*. Bu oyatda Isroil — shimoliy shohlikni, Yahudo janubiy shohlikni bildiradi.

65:10 *Sharon tekisligi...Oxor soyligi...* — Sharon tekisligi Isroilning g‘arbida, O‘rta yer dengizi bo‘yida joylashgan (33:9 ning birinchi izohiga qarang). Oxor soyligi esa

Isroilning sharqida, Yerixo shahri yaqinida joylashgan. Mana shu ikki nom ostida butun Isroil yurti nazarda tutilgan.

65:11 *Muqaddas tog‘im* — Quddusdagi Sion tog‘iga ishora. 4:5 ning ikkinchi izohiga qarang.

65:20 *Yuzga yetmay o‘lganni la’nati deb biladilar* — yoki *Yuzga kirgan gunohkor esa la’natlanadi*.

66:3 *...buqani qurbonlik qiladigan inson...Butga topinadigan odam kabidir* — mazkur oyatda, shu bobning 2–oyatidan farqli ravishda, Xudoga xo‘ja ko‘rsinga sajda qiladigan odam tasvirlangan. Bunday odam barcha diniy marosimlarni va udumlarni bajaradi–yu, lekin aslida uning yuragida Xudodan qo‘rquv yo‘q, u Xudoga bo‘ysunmaydi (yana shu bobning 5–oyatiga va 1:1-14 ga qarang).

66:8 *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion*. 1:8 izohiga qarang.

66:17 *sajdagoh bog‘lar* — 1:29 izohiga qarang.

66:18 *Ularning ishlaridan, o‘ylaridan nafratlanaman* — yoki *Ularning ishlarini, o‘ylarini bilaman* yoxud *Ularni ishlari, o‘ylari uchun jazolayman*.

66:18 *Hamma xalqlarni, elatlarni yig‘ish vaqti keldi* — yoki *Hamma xalqlarni, elatlarni yig‘ishga Men kelyapman*.

66:19 *Tarshish* — 2:16 izohiga qarang.

66:19 *Liviya* — qadimiy yunoncha tarjimaning ba’zi qo‘lyozmalaridan. Ibroniycha matnda *Ful*.

66:19 *Lidiya* — ibroniycha matnda bu yurtning qadimgi nomi *Lud*. Bu yurt hozirgi Turkiyaning sharqida joylashgan edi.

66:19 *Tuval* — bu yurt hozirgi Turkiyaning sharqida joylashgan edi.

66:19 *Yunon* — ibroniycha matnda *Yovon*, o‘sha vaqtda Yunon xalqi shu nom bilan ham atalardi.

66:20 *muqaddas tog‘im* — Quddusdagi Sion tog‘iga ishora. 4:5 ning ikkinchi izohiga qarang.

YEREMIYO

PAYG‘AMBARNING KITOBI

Kirish

Yeremiyo payg‘ambar notinch davrda yashagan edi. Vujudga kelgan yangi kuchli shohliklar atrofidagi davlatlarni zabt etardi. Kichkinagina Yahudo shohligi jang qilayotgan ikkita kuchli shohlik — Bobil va Misr orasida qolib ketgan edi. Oradan ko‘p vaqt o‘tmay, Bobil shohligi Yahudoni zabt etdi. Yahudo xalqi ozodlikni qo‘ldan boy berib, Bobil shohligining mustamlakasiga aylandi. Yeremiyo payg‘ambar bu voqealarning guvohi edi. Zafaniyo, Xabaqquq, Doniyor va Hizqiyol payg‘ambarlar Yeremiyoning zamondoshlari edi.

Yeremiyo yigirma yoshga to‘lar–to‘lmas, Yahudo xalqiga Xudoning so‘zini yetkaza boshladi. Uning faoliyati miloddan oldingi 586 yilgacha, ya’ni Bobil Yahudo yurtini zabt etgunga qadar davom etdi. So‘ng esa Misrga qochib ketayotgan odamlar Yeremiyoni majburan o‘zlari bilan olib ketishdi. Yeremiyo Misrda ham o‘z xalqiga Xudoning so‘zini yetkazishda davom etdi.

Yeremiyoning ko‘p bashoratlarida, ularning yozilgan sanasi ko‘rsatilgan. Ammo bu bashoratlar xronologik tarzda emas, mavzular bo‘yicha joylashtirilgan.

Ko‘pincha Yeremiyo Xudoning so‘zini odamlarga aniq va to‘g‘ri yetkazib berish uchun o‘z bashoratlarini nafaqat og‘zaki, balki harakatlar orqali ham tasvirlab beradi.

Yeremiyo payg‘ambar o‘jar va gunohga botgan Yahudo xalqini doimiy tarzda ogohlantirib turadi, Xudo ularni jazolamoqchi ekanini aytadi. Payg‘ambar xalqni Bobilliklarga taslim bo‘lishga chaqiradi. Shu sababdan Yeremiyoning dushmanlari uni xoinga chiqaradi. Ular Yeremiyoni zindonga tashlashadi, hatto uning joniga suiqasd uyushtirmoqchi bo‘lishadi. Shunda Yeremiyo payg‘ambar Xudoga yolvorib, ichidagi hamma dardini to‘kib soladi. Kitobning bu parchalari odamlar orasida “Munojot” deb nom olgan. Yeremiyo o‘z xalqiga achinib, ko‘p kuyinadi. Xalqning itoatsizligi va ayanchli qismatidan u ko‘p qayg‘uradi. Shu sababdan uni “yig‘layotgan payg‘ambar” deb ham atashadi.

Yeremiyo payg‘ambar Yahudo xalqiga: “Sizlar Egamiz bilan tuzilgan ahdni buzdingiz, yolg‘iz Unga xizmat qilmay, butparastlikka berilib ketdingiz”, deb ularga ko‘p tanbeh beradi. Shu qilmishlari uchun Yahudo xalqi Xudoning qahriga uchrab, Bobilliklarga taslim bo‘lishini, so‘ng esa Bobilga surgun qilinishini bashorat qiladi. Ammo bir kunmas–bir kun Xudo siylagan xalqini o‘z yurtiga qaytarib olib kelishini va ular bilan yangi ahd tuzishini aytadi (31:31-34, 32:36-40 ga qarang).

1–BOB

[1] Ushbu kitobda Xilqiyo o‘g‘li Yeremiyoning so‘zlari bayon etilgan. Yeremiyo Benyamin hududidagi Onoto‘t shahrida* yashagan ruhoniylardan biri edi. [2] Omon o‘g‘li Yo‘shiyo Yahudoda* hukmronlik qilgan davrning o‘n uchinchi yilida*, Egamizning so‘zi ilk bor Yeremiyoga ayon bo‘lgan edi. [3] Shundan so‘ng Yahudo shohi Yo‘shiyo o‘g‘li

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

Yohayiqim davridan* tortib, to Yahudo shohi Yo‘shiyo o‘g‘li Zidqiyo hukmronligining o‘n birinchi yiligacha*, Egamiz Yeremiyoga O‘z so‘zini bir necha marta ayon qilgan edi. Zidqiyo hukmronligining o‘n birinchi yili beshinchi oyida* Quddus aholisi Bobilga surgun qilindi.

Egamiz Yeremiyoni tanlaydi

4 Egamiz menga O‘z so‘zini ayon qildi:

5 “Onang qornida senga shakl bermasimdan oldin seni bilgan edim,
Tug‘ilmasingdan oldin seni O‘zim uchun ajratib olgan edim.
Xalqlarga seni payg‘ambar etib tayinlagan edim.”

6 Men Unga shunday javob qaytardim:
— Yo Egam Rabbiy! Men tuzukroq ham gapira olmayman. Hali juda yoshman.
7 Egamiz esa menga shunday dedi:
— O‘zingni, yoshman, deb aytma! Men seni kimning oldiga yuborsam, o‘shalarning oldiga borasan. Senga amr qilgan hamma gaplarimni ularga aytasan. 8 Sen ulardan qo‘rqma. Men sen bilan birga bo‘laman, seni xalos qilaman. Buni Men, Egang, aytdim.
9 So‘ng Egamiz qo‘lini uzatib, labimga tekkizdi–yu, dedi:
— Mana, so‘zlarimni og‘zingga solib qo‘ydim. 10 Bugundan boshlab xalqlar va shohliklarni qo‘porib, yo‘q qilishing uchun, vayron qilib, ag‘darishing uchun, bunyod etib, mustahkamlashing uchun senga izn berdim.

Ikkita vahiy

11 Egamiz menga O‘z so‘zini ayon qilib, shunday dedi:
— Ey Yeremiyo, nimani ko‘ryapsan?
— Bodom shoxini, — deb javob berdim men.
12 — To‘g‘ri ko‘rding, — dedi Egamiz. — Bodom shoxi Mening hushyor turishimni bildiradi*. Aytgan so‘zlarimni* Men tez orada bajo keltiraman.
13 Egamiz menga O‘z so‘zini yana ayon qilib dedi:
— Nimani ko‘ryapsan?
— Shimol tomonda qaynab turgan bir qozonni. Qozon biz tomonga ag‘darilay–ag‘darilay deb turibdi, — dedim.
14 Egamiz menga shunday dedi:
— Bu yurtning butun aholisi ustiga shimol tomondan falokat yog‘iladi.
15 Egamiz shunday demoqda: “Men shimoldagi shohliklarning barcha xalqlarini* chaqirib olyapman. Ularning shohlari kelib, o‘z taxtlarini Quddus darvozalarining yoniga o‘rnatadilar. Quddus devorlarini qurshab oladilar, Yahudo shaharlarining hammasiga hujum qiladilar. 16 Shu yo‘sin Men xalqimga qarshi hukmimni e’lon qilaman, chunki O‘z xalqim Meni tark etib, qabihlik qildi. Ular begona xudolarga qurbonliklar keltirib, o‘z qo‘llarining ijodiga sajda qildilar. 17 Sen endi bo‘la qol, belingni bog‘la. Buyurganlarimning hammasini ularga borib ayt. Ulardan qo‘rqma. Aks holda, ularning oldida seni vahimaga solaman. 18 Bugun Men seni bir qal’aday, temir ustunday va bronza devorday mustahkam qildim. Sen butun yurtga — Yahudo shohlariga, shahzodalariga, ruhoniylariga, yurt aholisiga qarshi chiqasan. 19 Ular senga hujum qilishadi, lekin seni yenga olishmaydi. Men sen bilan birga bo‘laman, seni xalos qilaman.” Egamizning

kalomi shudir.

2–BOB

Xudo Isroil xalqiga g‘amxo‘rlik qiladi

1 Egamiz menga O‘z so‘zini ayon qildi: 2 “Quddusga borib, jar sol: «Egamiz shunday
deb aytmoqda:

Yoshligingdagi vafodorliging yodimda,
Kelinchakligingdagi sevging esimda.
Sen sahroda Menga ergashgan eding,
Ekin ekilmagan yerda orqamdan yurar eding.
3 Ey Isroil, sen Menga bag‘ishlangan eding,
O‘rimimning ilk hosiliga o‘xshagan eding.
O‘sha hosilni yegan har kim aybdor hisoblanardi,
Bundaylarning boshiga kulfat kelar edi,
— deb aytmoqda Egamiz.»”

Isroil ajdodlarining gunohi

4 Ey Yoqub nasli, jamiki Isroil* urug‘lari, Egamizning so‘zlarini eshitinglar. 5 Egamiz
shunday demoqda:

“Ota–bobolaringiz Mendan nima ayb topdilar?
Nima uchun Mendan uzoqlashdilar?
Ular betayin butlarga sig‘indilar,
O‘zlari ham betayin bo‘lib qoldilar.
6 Ular Menga intilmaydilar.
Men esa ularni Misrdan olib chiqqan edim,
Cho‘ldan, chuqurliklarga to‘la sahrodan olib o‘tgandim,
Zulmat qamragan qaqroq yerda olib yurgan edim.
Odam yashamagan, oyoq yetmagan joydan olib o‘tgan edim.
7 Men sizlarni hosildor yurtga olib kelgandim,
Mevalaridan, mo‘l hosilidan yenglar, degan edim.
Ammo sizlar kelib, yurtimni harom qildingizlar,
Mulkim bo‘lgan yerimni jirkanch bir joyga aylantirdingizlar.
8 Ruhoniylar Menga intilmadilar,
Qonun himoyachilari Meni bilmadilar,
Hukmdorlar Menga qarshi bosh ko‘tardilar,
Payg‘ambarlar Baal* nomidan bashorat qildilar,
Hech narsaga yaramaydigan butlarga ko‘ngil bog‘ladilar.”

Egamiz O‘z xalqini ayblaydi

9 Egamiz shunday demoqda:
“Men sizlarni yana bir bor ayblayman,
Nabiralaringizni ham ayblayman.
10 G‘arbdagi Kipr* qirg‘oqlariga borib ko‘ringlar,
Sharqdagi Kedarga* odam jo‘natib, bilib kelinglar.

Bunday voqea hech yuz berganmikan?!
11 Biron xalq o‘z xudolaridan voz kechganmikan?!
Xudolari haqiqiy bo‘lmasa–da, ulardan yuz o‘girganmikan?!
Mening xalqim esa o‘z ulug‘vor Xudosidan voz kechdi,
Qadrsiz butlarga Meni almashtirdi.
12 Ey osmon, bundan hayratlangin,
Vahima ichra titragin,
— deb aytmoqda Egamiz. —
13 Mening xalqim ikki gunoh qildi:
Ular Meni — hayotbaxsh suv bulog‘ini tark etdilar.
O‘zlari uchun sardobalar qazidilar,
Suvni ushlab turolmaydigan yoriq sardobalar qurdilar.

Xiyonatning oqibati

14 Isroil qulmidi?! Yoki qullikda tug‘ilganmidi?!
Nechun unda u g‘animlariga o‘lja bo‘ldi?
15 G‘animlari unga sherday o‘kirdi,
Ovozi boricha unga bo‘kirdi.
O‘shalar dastidan Isroil yurti xarob bo‘ldi,
Shaharlari vayron bo‘lib, huvullab qoldi.
16 Ey Isroil, Nuf va Taxpanxasdagi* xalqlar
Sochingni qirib tashladilar*.
17 Senga yo‘l ko‘rsatgan Egang Xudoni tark etding,
Shu qilmishing bilan o‘z boshingni o‘zing yeding.
18 Endi nega Misrga borasan?
Nil* suvidan ichish uchunmi?!
Nechun Ossuriyaga* yo‘l olasan?
Furot suvidan ichish uchunmi?!*
19 Qabihliging o‘zingning boshingga yetadi,
Xiyonating seni mahkum qiladi.
Egang Xudoni tark etganing
Naqadar yomon va alamli ekanini
Ko‘rib, bilib qo‘ygin.
Sen Mendan qo‘rqmas ekansan”, demoqda
Sarvari Olam — Rabbiy.

Isroil xalqi Xudoga sajda qilishdan bosh tortadi

20 Egamiz shunday demoqda:
“Ey Isroil, sen ancha oldin
Bo‘yinturug‘ingni sindirgan eding,
Ko‘p vaqt oldin kishanlaringni uzgan eding.
«Senga xizmat qilmayman!» deb aytgan eding.
Har bir baland tepalikda butlarga sajda qilding,
Har bir yashil daraxt ostida fohishaday yotding*.
21 Men seni a’lo tokday ekkan edim,
Sen eng sara urug‘dan paydo bo‘lgan eding.

Nechun endi aynib qolding?
Nega yovvoyi tokka aylanib qolding?
22 Sen o‘zingni ishqor bilan ishqalasang ham,
Ko‘p sovun ishlatib, o‘zingni yuvsang ham,
Aybdorlik dog‘laring ketmaydi,
Bular doim ko‘z o‘ngimda turadi,
— deb aytmoqda Egamiz Rabbiy. —
23 Shunday ekan, qanday qilib:
«Bulg‘anmadim», deb aytasan?!
Nega: «Baalga sig‘inmadim», deysan?!
Vodiyda qilgan ishlaringga* qara,
Qilgan qilmishlaring haqida o‘ylab ko‘r,
Sen hirsi qo‘zigan urg‘ochi tuyaga o‘xshaysan,
O‘zingni u yoqdan–bu yoqqa urasan.
24 Sahroda ulg‘aygan bir qulonga o‘xshaysan,
Shahvating qo‘ziganda, havoni iskaysan.
Sening hirsingni kim qondira oladi?!
Hech bir erkak senga erishish uchun o‘zini urintirishi shart emas,
Juftlashish davrida seni osonlikcha topib olishadi.
25 Ey Isroil, boshqa xudolarning ketidan yuguravermagin,
Chorig‘ing yirtilguncha, tomog‘ing quriguncha
Ular ketidan yuravermagin.
Lekin sen shunday deding:
«Gapirganing befoyda,
Axir, men o‘sha xudolarni sevib qoldim,
Ularning ketidan bormasam bo‘lmaydi.»

Isroil xalqi jazolanadi

26 Qo‘lga tushgan o‘g‘ri sharmanda bo‘lganday,
Isroil xalqi ham sharmanda bo‘ladi.
Ularning o‘zlari, shohlari, a’yonlari uyatga qoladi,
Ruhoniylaru payg‘ambarlari sharmanda bo‘ladi.
27 Ular yog‘ochga: «Mening otam sensan» deyishadi,
Toshga*: «Tuqqan onam sensan», deb aytishadi.
Ammo Menga yuz burmay, orqa o‘girishadi,
Boshlariga kulfat kelganda esa,
«Bizga najot ber!» deya Menga yolvorishadi.
28 Xo‘sh, o‘zlaringiz uchun yasagan xudolaringiz qani?
Kulfat chog‘ida sizlarni qutqara olsa, kelsin.
Shaharlaringiz qancha ko‘p bo‘lsa,
Xudolaringiz ham shunchadir, ey Yahudo xalqi.

29 Nechun Men bilan da’volashasiz?!
Hammangiz Menga qarshi bosh ko‘tardingiz!
— deb aytmoqda Egamiz. —
30 Ey xalqim, seni jazolaganim zoye ketibdi.

Sen baribir gapimga kirmading.
Sening qiliching yirtqich arslonday
Payg‘ambarlaringni qirib tashladi.

31 Ey bu nasl, Mening gaplarimga quloq sol!
Nahotki Men Isroil uchun sahroday bo‘lgan bo‘lsam?!
Nahotki zulmat qoplagan qorong‘i yerday bo‘lgan bo‘lsam?!
Nechun xalqim: «Endi ozodmiz, oldingga qaytib bormaymiz», deb aytadi?
32 Qiz bola taqinchoqlarini unutadimi?!
Kelinchak o‘z libosini esdan chiqaradimi?!
Yo‘q! Ammo xalqim Meni unutdi,
Oradan son–sanoqsiz kunlar o‘tib ketdi.
33 Oshiqlarni topishga naqadar ustasan!
Eng buzuq ayol ham sendan o‘rgansa bo‘ladi.
34 Sen kiyimlaringni dog‘ qilding,
Aybsiz qashshoqlarning qoniga ularni belading,
Ular uyingga o‘g‘ri bo‘lib tushmagan edi.
Shunga qaramay sen:
35 «Aybsizman», deb aytasan.
«Egamiz g‘azabidan tushgani aniq», deysan.
«Gunoh qilmadim» deganing uchun
Men seni jazolayman.
36 Nega sen yengiltaklik qilasan?
Nega ittifoqchilaringni o‘zgartirasan?
Sen Ossuriyadan yordam olmaganingday,
Misrdan ham hech qanday yordam olmaysan.
37 Sen Misrdan chiqib kelasan,
Uyalganingdan yuzingni qo‘ling bilan to‘sasan.
Zero, sen umid bog‘lagan xalqni Egang rad etdi.
Sen ulardan hech qanday naf ko‘rmaysan.”

3–BOB

Bevafo Isroil

1 Egamiz shunday demoqda: “Bir odam xotini bilan ajrashdi, deylik. Agar xotini borib, boshqasiga turmushga chiqsa, oldingi eri uni qayta nikohiga olishi mumkinmi?! Bunday bema’nigarchilik yurtni harom qilib yubormaydimi?!* Ey Isroil, sen ko‘p o‘ynashlar orttirib fohishalik qilding. Endi qaysi yuz bilan oldimga qaytib kelmoqchisan?!

2 Atrofingdagi yalang qirlarga nazar solib, qara!
Sen fohishalik qilmagan biror joy qoldimi?!*
Sen yo‘l bo‘ylarida o‘tirib, o‘ynashlaringni kutding.
Cho‘lda bosqinchilik qilishga shay turgan qaroqchiday bo‘lding.
Menga qilgan bevafoliging va fosiqliging bilan,

Butun yurtni harom qilding.
3 Shu sababdan yomg‘ir yog‘madi,
Bahorda yog‘ingarchilik bo‘lmadi.
Sen fohishaday bezbetsan,
Uyat degan narsani bilmaysan.
4 Endi esa Menga: «Otajonimsan», deyapsan,
«Yoshligimdan buyon do‘stimsan», deb aytyapsan!
5 «Hadeb mendan jahling chiqaveradimi?» deysan,
«Bir umr menga g‘azabingni sochasanmi?» deb aytasan,
O‘zing esa imkoning boricha yovuzlik qilaverasan.”

Isroil va Yahudo xalqlari tavbaga chaqiriladi

6 Shoh Yo‘shiyo davrida* Egamiz menga shunday dedi: “Bevafo Isroilning* qilmishlarini ko‘rdingmi? Har bir baland tepalikda va har bir yashil daraxt ostida u fohishalik qildi*. 7-8 Barcha qilmishlaridan keyin ham, oldimga qaytib keladi, deb o‘ylagan edim. Lekin u qaytib kelmadi. Shuning uchun Men sadoqatsiz Isroilga taloq xatini berib, jo‘natib yubordim*. Uning singlisi Yahudo esa buni ko‘rgan edi. Shunga qaramay bu munofiq zarracha ham qo‘rqmadi, u Menga vafo qilmay, fahshga berildi.
9 Isroil tosh va yog‘ochdan yasalgan xudolarga sig‘inib, zino qilgan edi. Yengiltaklik bilan fohishalik qilib, yurtni harom etgan edi. 10 Bularga qaramay, uning munofiq singlisi Yahudo Menga sof ko‘ngil bilan qaytmadi. U ko‘zbo‘yamachilik qildi”, — deb aytmoqda Egamiz.

11 Keyin Egamiz menga shunday dedi: “Bevafo Isroil, munofiq Yahudoga qaraganda, o‘zini solih qilib ko‘rsatdi. 12 Qani, shimolga bor, u yerda ushbu so‘zlarni jar solib ayt: «Egamiz shunday demoqda: ey bevafo Isroil, Menga yuz bur! Endi Men senga g‘azabimni sochmayman, Men rahmdilman, — deb aytmoqda Egamiz. — Sendan to abad g‘azablanmayman. 13 Faqatgina gunohingni tan olgin: sen Egang Xudoga qarshi bosh ko‘tarding, har bir yashil daraxt ostida begona xudolarga sajda etib, zino qilding, Mening gapimga kirmading, — deb aytmoqda Egamiz.»”

14 Egamiz shunday demoqda: “Ey sadoqatsiz farzandlar, oldimga qaytinglar! Zero, Men xo‘jayiningizman. Har bir shahardan bittangizni, har bir xonadondan ikkitangizni olib, Quddusga* olib kelaman. 15 Men sizlarga ko‘nglimdagi cho‘ponlarni beraman. Ular sizlarni donolik va bilim bilan boshqarishadi. 16 Sizlar yurtda ko‘payib, uvali–juvali bo‘lasizlar. Shunda xalq Mening Ahd sandig‘im* haqida gapirmaydigan bo‘ladi. Ular Sandiq haqida o‘ylashmaydi, uni esga ham olishmaydi, zarurati bo‘lmagani uchun yangisini yasashmaydi*. 17 Zero, o‘sha vaqtda Quddus «Egamizning Taxti» deb ataladi. Hamma xalqlar Menga sajda qilish uchun Quddusda, Mening huzurimda to‘planadilar. Shundan keyin ular hech qachon yovuz yuraklarining o‘jarliklariga itoat qilmaydilar.
18 O‘sha kunlarda Yahudo va Isroil xalqlari birlashadi. Ular shimoldagi yurtdan Men ota–bobolaringizga mulk qilib bergan yurtga birga qaytib kelishadi.

19 Men, Egangiz, ichimda shunday degan edim:
«Seni jon–jon deya O‘zimga farzand qilib olgan bo‘lar edim,
Senga ajoyib yurtni sovg‘a qilgan bo‘lar edim,
Xalqlarning eng go‘zal mulkini senga bergan bo‘lar edim.»
Meni «Otajonim deysan», deya niyat qilgan edim,

Mendan hech qachon yuz o‘girmaysan, deb o‘ylagan edim.
20 Ammo, ey Isroil, Menga bevafolik qilding!
Sen eriga xiyonat qilgan ayolday bo‘lding,
— deb aytmoqda Egamiz. —

21 Yap–yalang qirlar uzra fig‘on eshitilmoqda,
Isroil xalqi dodu faryod solmoqda.
Zotan, ular haq yo‘ldan ozgan edilar,
O‘zlarining Egasi Xudoni unutib yuborgan edilar.
22 Ey sadoqatsiz farzandlarim, orqaga qaytinglar!
Bevafo qalbingizga Men shifo beraman.

Sizlar Menga shunday deysizlar:
«Mana, oldingga qaytyapmiz,
Axir, Egamiz Xudo Sensan.
23 Biz qirlarda butlarga sajda qilar edik,
Qattiq shovqin–suron ko‘tarar edik.
Ammo hammasi behuda ekan.
Yagona najotkorimiz Sensan, ey Egamiz Xudo.
24 Bu yaramas butlar bolaligimizdan buyon,
Otalarimizning mehnatini yo‘qqa chiqardi,
Ularni mol–qo‘ylaridan ayirdi,
O‘g‘il–qizlaridan judo qildi.
25 Keling, sharmandalikni o‘zimizga to‘shak qilaylik,
Uyatni yopinchiq qilib, ustimizga yopaylik!
Axir, ota–bobolarimiz bilan biz
Egamiz Xudoga qarshi gunoh qildik.
Yoshligimizdan to bugungacha
Egamiz Xudoning gapiga kirmadik.»”

4–BOB

Tavbaga da’vat

1 Egamiz shunday demoqda:

“Ey Isroil, qani endi qaytsang,
Qani endi, Menga qaytib kelsang!
Huzurimdan jirkanch butlaringni uloqtirib tashlasang,
Qani endi, Mening yo‘limdan ozmay yursang.
2 Qani endi, haqiqat, adolat va to‘g‘rilik ila
«Egamiz shohid!» deya qasam ichsang.
Shunda xalqlar Men orqali baraka topadi,
Ular Men bilan faxrlanadi.”

3 Egamiz Yahudo xalqiga va Quddus aholisiga shunday deb aytmoqda:

“Yeringizni shudgor qiling,
Tikanlar orasiga urug‘ sepmang.
4 Ey Yahudo xalqi va Quddus aholisi,
O‘zingizni Men, Egangizga bag‘ishlang,
Yuragingizni sunnat qiling*.
Aks holda, yovuz qilmishingiz uchun
Alangali g‘azabimni ustingizga yog‘diraman.
Bu g‘azabimni hech kim so‘ndira olmaydi.

Yahudo xalqi boshiga keladigan falokatlar

5 Yahudoda e’lon qiling, Quddusda jar soling:
«Butun yurt bo‘ylab burg‘u chalinsin.»
Baland ovozda hayqiring: «Qani, to‘planinglar!
Mustahkam shaharlarga qochib boraylik!»
6 Quddusga* qochib borish uchun ishora bering,
Imillamay, tezroq qoching!
Men shimoldan* kulfat keltirmoqdaman,
Dahshatli halokat olib kelmoqdaman.
7 Ana, xalqlarni halok etuvchi yo‘lga tushdi,
U sher kabi chakalakzordan chiqdi.
Yurtingizni xarob qilgani uyasini tashlab keldi.
Evoh, endi shaharlaringiz vayron bo‘ladi,
Hammasi huvullab qoladi.
8 Marsiya aytib, faryod qilinglar,
Qanorga o‘ranib olinglar*.
Axir, Egangizning alangali g‘azabi
Sizni chetlab o‘tmadi.”

9 Egamiz shunday demoqda: “O‘sha kuni shoh bilan a’yonlarning yuragi orqaga tortib ketadi. Ruhoniylar bilan payg‘ambarlar dahshatga tushadi.” 10 Shunda men dedim: “Yo Egam Rabbiy, Sen Quddus aholisini yomon laqillatding! Qilich ularning bo‘g‘zida turgan bir paytda, Sen ularga tinchlik va’da qilding.”

11 O‘sha payt kelganda Egamiz Quddus aholisiga shunday deb aytadi: “Sahrodagi yalang qirlardan chiqqan garmsel* xalqim tomon esmoqda. U donni xashakdan tozalaydigan mayin shabada emas, 12 balki Men yuborgan kuchli bir garmseldir. Men sizlarga qarshi O‘z hukmimni e’lon qilmoqdaman.”

Yahudo dushmanlar qurshovida

13 Qarang! Dushman bulutday ko‘tarilmoqda.
Ularning jang aravalari quyun kabidir,
Otlari burgutdan ham chaqqondir.
Evoh, sho‘rimiz qursin! Xonavayron bo‘ldik!
14 Ey Quddus, najot topishing uchun yuragingni pokla.
Qachongacha yuragingda yovuz niyat saqlaysan?!
15 Ana, Dan shahridan xabarchining ovozi eshitilmoqda,
Efrayim qirlaridan* bir shum xabar kelmoqda.

16 Egamiz shunday deydi:
“Xalqlarga buni aytinglar,
Quddusda shunday e’lon qilinglar:
«Olis yurtdan bosqinchilar kelmoqda,
Ular Yahudo shaharlariga qarshi hayqirmoqda.
17 Bosqinchilar dala qo‘riqchilariga o‘xshab,
Quddusni qurshab olishadi.»
Zotan, Quddus ahli Menga qarshi bosh ko‘tardi,
— deb aytmoqda Egamiz. —
18 Tutgan yo‘lingiz, qilgan qilmishingiz dastidan
Bu kulfat boshingizga keldi–ku!
Jazoingiz shudir.
Oh, naqadar achchiq bo‘lmasa bu kulfat!
Naqadar yurakni ezadi–ya!”

Yeremiyo o‘z xalqi uchun qayg‘uradi

19 Voy jonim, adoyi tamom bo‘ldim!
Voy yuragim! Qinidan chiqquday bo‘lyapti!
Sukut saqlab tura olmayman,
Eshityapman burg‘u sadolarini,
Eshityapman urushga da’vatlarni.
20 Kulfat ketidan kulfat keldi,
Butun yurt xonavayron bo‘ldi.
Bir zumda chodirlarim buzilib ketdi,
Maskanim pardalari yo‘q bo‘ldi.
21 Qachongacha yov bayrog‘i ko‘zim oldida hilpirab turaveradi?!
Qachongacha burg‘u ovozi qulog‘imga chalinaveradi?!

22 Egamiz shunday javob berdi:
“Axir, Mening xalqim befarosat,
Ular Meni tanishmaydi.
Ular nodon, aqlsiz farzandlardir.
Yomonlik qilishga usta,
Yaxshilik qilish esa qo‘llaridan kelmaydi.”

Kelayotgan kulfat haqidagi vahiy

23 Men yerga qaradim, yer ayqash–uyqash edi,
Ko‘zimni osmonga tikdim, osmonda nur ko‘rinmasdi.
24 Tog‘larga qaradim, tog‘lar silkinayotgan edi,
Hamma qirlar larzaga kelgan edi.
25 Qaradim, ammo inson zoti ko‘rinmadi,
Hatto ko‘kdagi qushlar ham uchib ketgan edi.
26 Qaradim, hosildor yerlar cho‘lga aylangan edi,
Hamma shaharlar vayron bo‘lgan edi.
Bunga sabab Egamizning qattiq qahri edi.

27 Zero, Egamiz shunday degan edi:

“Butun yurt vayron bo‘ladi,
Lekin yurtni butunlay yo‘q qilib yubormayman.
28 Butun dunyo aza tutadi,
Osmon ham qop–qora bo‘lib ketadi.
Buni Men aytdim, shaxtimdan qaytmayman.
Qaror qildim, qarorimni o‘zgartirmayman.”

29 Otliq va kamonkashlar hayqirig‘idan
Har bir shahar aholisi qochib qoladi.
Ular chakalakzorlar oralab yugurishadi,
Qoyalarga chiqib, oralariga yashirinib olishadi.
Hamma shaharlar huvullab qoladi,
U yerlarda yashaydigan odam bo‘lmaydi.
30 Sen esa, ey xarobazorga aylangan shahar,
Nega ustingga qirmizi libos kiyib olding,
Oltin taqinchoqlar bilan bezanding?
Nega ko‘zlaringni bo‘yab olding?
Bekorga bezanib olibsan!
O‘ynashlaring* sendan nafratlanadi,
Joningga qasd qilmoqchi ular.

31 Ana, kimdir to‘lg‘oq tutgan ayolday baqirmoqda,
Kimdir ilk bor tug‘ayotgan ayolday ingramoqda.
Qiz* Quddus entikib qichqirmoqda,
Qo‘llarini cho‘zib shunday demoqda:
“Sho‘rim qursin! Qotillarim oldida madorim qolmadi.”

5–BOB

Quddus aholisining gunohlari

1 Egamiz shunday deydi:
“Quddusning har bir ko‘chasiga kirib chiqinglar,
Atrofingizga qarab, bilib olinglar,
Shahar maydonlarida qidirib ko‘ringlar,
Biron adolatli, rostgo‘y odam bormikan.
Agar shunday odamni topib kelsangiz,
Men Quddus aholisining gunohidan o‘taman.
2 Ular «Egamiz shohid!» deya qasam ichadilar,
Ammo ichgan qasamlari yolg‘on.”
3 Ey Egam, Sen haqiqatni izlaysan.
Sen bu xalqni urgan eding,
Ammo ular og‘riq sezmadilar.
Ularni deyarli yo‘q qilib yuborganingda ham,
Gapingga kirmadilar.

Betlarini toshdan ham qattiq qildilar,
Tavba qilishni xohlamadilar.

4 Shunda men ichimda dedim:
“Eha, bular kambag‘al–ku!
Shuning uchun ularning farosati yo‘q,
Ular Egamizning yo‘lini bilmaydi,
Xudosining qonunini tanimaydi.
5 Qani, boylarning* oldiga boray–chi,
Ular bilan gaplashib ko‘ray–chi,
Egamizning yo‘lini ular albatta biladi,
Ular Xudosining qonunini tanishadi.”
Ammo ularning hammasi bo‘yinturug‘ini sindirgan ekan,
Egamizga itoat etishdan bosh tortgan ekan.

6 Shuning uchun o‘rmondan chiqqan sher ularni o‘ldiradi,
Cho‘ldan kelgan bo‘ri ularni g‘ajib tashlaydi.
Qoplon ularning shaharlari oldida pisib turadi,
Shahardan chiqqan har bir odamni tilka–pora qiladi.
Axir, ular ko‘p gunoh qildilar,
Xudoga ko‘p xiyonat etdilar.

7 Egamiz shunday deydi:
“Ey Quddus, Seni qanday qilib kechiraman?!
Farzandlaring Meni tark etdilar–ku!
Ular Xudo bo‘lmagan butlarning nomini o‘rtaga qo‘yib ont ichdilar.
Men ularning ehtiyojlarini qondirar edim,
Ular esa zino qilaverar edilar,
Fohishalarning uyiga to‘dalashib borar edilar.
8 Ular hirsi qo‘zg‘agan ayg‘ir otlar kabi edilar,
Har biri qo‘shnisining xotiniga kishnar edi.
9 Men ularni buning uchun jazolamaymi?!
Shunday bir xalqdan o‘ch olmaymi?!
— deb aytmoqda Egamiz. —

10 Qani, ularning uzumzorlariga kiringlar,
Toklarini kesib tashlanglar.
Ammo butunlay yo‘q qilmanglar.
Novdalarini sindiringlar,
Endi ular Meniki emas.
11 Axir, Isroil va Yahudo xalqlari
Menga butunlay xiyonat qilishdi.”
Egamizning kalomi shudir.

Egamiz Isroilni tark etadi

12 Isroil xalqi Egamiz haqida yolg‘on gapirdi, ular shunday dedi:

“Egamiz baribir hech narsa qilmaydi.
Hech qanday koʻrgilik boshimizga tushmaydi!
Qahatchilik, urush boʻlmaydi!
13 Paygʻambarlarining bemaʼni soʻzlari shamolga oʻxshaydi,
Xudoning soʻzi ularga ayon boʻlmagan.
Bu kulfatlar oʻzlarining boshiga tushsin!”

14 Shuning uchun Parvardigori Olam — Egamiz shunday demoqda:

“Ey Yeremiyo, xalqim aytgan bu gaplari uchun
Men Oʻz soʻzlarimni sening ogʻzingda olovday qilaman.
Bu xalq esa oʻtin kabi boʻladi,
Olov ularni yondirib tashlaydi.”
15 Egamiz shunday demoqda:
“Ey Isroil xalqi,
Men olisdagi bir xalqni qoʻzgʻataman.
Ularni sizga qarshi yuboraman.
Ular kuchli, qadimgi bir xalqdir.
Bu xalqning tilini sizlar bilmaysizlar,
Ularning gaplarini tushunmaysizlar.
16 Ularning hammasi mohir jangchilardir,
Oʻqlari oʻlim elchilaridir.
17 Ular hosilingizni, noningizni yeb bitirishadi,
Oʻgʻil–qizlaringizni oʻldirishadi.
Mol–qoʻylaringizni boʻgʻizlashadi,
Uzumzoru anjirzorlaringizni yoʻq qilishadi.
Suyangan mustahkam shaharlaringizni
Lashkarlari vayron qilishadi.”

18 Egamiz demoqda: “Shunday kunlarda ham Men Oʻz xalqimni butunlay qirib yubormayman. 19 Xalqim sendan: «Nima uchun Egamiz Xudo bunday ishlarni qildi?» deb soʻraganda, sen, ey Yeremiyo, ularga shunday javob ber: «Sizlar Xudoni tark etib, yurtimizda begona xudolarga xizmat qildingizlar. Endi oʻzga yurtda begona odamlarga xuddi shunday xizmat qilasizlar.»

Xudo xalqni ogohlantiradi

20 Borib, Yoqub nasliga shunday deb ayt, Yahudo xalqiga shunday deb e’lon qil:

21 Sizlarning koʻzingiz bor, ammo koʻrmaysizlar,
Qulogʻingiz bor, ammo eshitmaysizlar.
Ey aqlsiz, befarosat odamlar,
Gaplarimni eshitinglar!
22 Nahotki Mendan qoʻrqmasangizlar?!
Mening oldimda titramasangizlar?!
— deb aytmoqda Egamiz. —
Axir, Men dengizga qumni chegara qilib qoʻydim,

O‘tib bo‘lmaydigan abadiy to‘siq qildim.
To‘lqinlar ko‘pirib, ko‘tarilsa ham,
To‘siqdan ustun kelolmaydi.
Hayqirib o‘kirsa ham,
Undan oshib o‘tolmaydi.
23 Ammo sizlar o‘jar va isyonkorsizlar,
Yo‘ldan ozib, Meni tark etdingizlar,
24 Sizlar ichingizda hech aytmaysizlar:
«Egamiz Xudodan qo‘rqaylik,
U o‘z vaqtida yomg‘ir yog‘diradi–ku!
Kuzda ham, bahorda ham yerimizni sug‘oradi–ku!
Yig‘im–terim mavsumini o‘z vaqtida beradi–ku!» deb.
25 Gunohlaringiz sizlarni bulardan mahrum etdi,
Ayblaringiz sizlarni barakadan judo etdi.

26 Ha, xalqim orasida yaramas odamlar bor.
Ular qush ovlayotganday pisib yotishar,
Tuzoq qo‘yib, odamlarni o‘z domiga tortishar.
27 Ovchi qafasni qushlarga to‘ldirganday,
Ular uylarini hiylaga to‘ldirdilar.
Shu tufayli kuchayib, davlat orttirdilar,
28 Semirib, yaltirab ketdilar.
Qabih ishlarining chek–chegarasi yo‘q.
Ular yetimni oqlashga harakat qilmaydi,
Yo‘qsilning haqini himoya etmaydi.
29 Men ularni bu uchun jazolamaymi?!
Shunday bir xalqdan o‘ch olmaymi?!
— deb aytmoqda Egamiz. —

30 Qo‘rqinchli va dahshatli ishlar
Bu yurtda sodir bo‘lmoqda:
31 Payg‘ambarlar yolg‘ondan bashorat qilmoqda,
Ruhoniylar o‘zlaricha* xalqimni boshqarmoqda,
Xalqimga bularning hammasi xush kelmoqda.
Ammo oxirida ular nima qilar ekan–a?”

6–BOB

Quddus dushmanlar qurshovida

1 Egamiz shunday deydi:
“Ey Benyamin nasli,
Joningizni qutqaringlar!
Quddusdan qochib chiqinglar!
Taxuva shahrida burg‘u chalinglar!
Bayt–Xakerem shahrida* olov yoqib, belgi ko‘rsatinglar.

Ana, shimoldan bir falokat kelyapti,
Dahshatli bir halokat yaqinlashyapti.
2 Qiz* Quddus* go‘zal va latofatlidir,
Ammo Men uni yo‘q qilib tashlayman.
3 Shahar atrofiga joylashib olgan cho‘ponlarday,
Dushmanlar Quddusni qamal qiladi.
Har biri o‘z lashkari uchun joy tanlaydi.
4 Ular shunday deb aytishadi:
«Quddusga qarshi jangga tayyorlaninglar!
Bo‘la qolinglar, kunduz kuni ularga hujum qilamiz!
Sho‘rimiz qursin! Kun ham botyapti,
Oqshom soyalari bo‘y cho‘zib qoldi.
5 Endi tunda hujum qilamiz,
Shahardagi qal’alarni vayron etamiz!»”

6 Sarvari Olam dushman lashkariga shunday demoqda:
“Daraxtlarini kesinglar*,
Quddus devoriga qiyalatib tuproq uyinglar*.
Bu shahar jazolanishi kerak,
Shahar zo‘ravonlikka to‘lib–toshgan.
7 Buloqdan suv qaynab chiqqani singari,
Quddusdan qabihliklar qaynab chiqyapti.
Zo‘ravonligu buzg‘unchilik sadolari eshitilyapti.
U yerda ko‘rganim xastaligu yaralar.
8 Ey Quddus, esingni yig‘ib olgin,
Yo‘qsa, Men sendan yuz o‘giraman.
Seni tashlandiq bir joyga aylantiraman,
Yurtingni huvullatib qo‘yaman.
9 Dushmanlaringga aytaman,
Ular seni ship–shiydam qiladilar,
Bir shingil uzumi qolmagan tokka o‘xshatib qo‘yadilar.”
Sarvari Olamning kalomi shudir.

Isyonkor Isroil

10 Ey Egam! Kimga gapiray, kimni ogohlantiray?!
Kim mening gaplarimga quloq soladi?!
Qara, ularning quloqlari yopiq*,
Ular hech narsani eshitmaydi.
Sening so‘zingdan ular xafa bo‘ladi,
Uni eshitishni xush ko‘rmaydi.
11 Ammo ichim Sening g‘azabingga to‘lgan edi,
Jahlimni tiyishdan charchadim.

Egamiz menga shunday dedi:
“G‘azabimni ko‘chadagi bolalarga sochgin,
To‘dalashib turgan yigitlarga sochgin.

G‘azabim erkagu ayollarga tushadi,
Munkillagan qariyalar ham undan qochib qutulmaydi.
12 Uylari, dalalari va xotinlari
Boshqa birovlarga beriladi.
Men bu yurt aholisiga qarshi qo‘l ko‘taraman,
— deb aytmoqda Egamiz. —

13 Ular kichkinasidan tortib, kattasigacha,
Nafsini tiyolmay harom yo‘l bilan pul topishadi.
Payg‘ambardan tortib, ruhoniygacha —
Hammasi tovlamachilik qilishadi.
14 Xalqimning yaralarini yuzaki davolashadi.
Ahvol og‘ir bir paytda «hammasi yaxshi», deb aytishadi.
15 Jirkanch ishlari uchun uyaladilarmi?
Yo‘q, uyalmaydilar!
Qizarish degan narsani bilmaydilar,
Shuning uchun boshqalarday halok bo‘ladilar.
Ha, ularni jazolab, xonavayron qilaman.”
Egamizning kalomi shudir.

Isroil Xudoning yo‘lidan ozadi

16 Egamiz O‘z xalqiga shunday deb aytmoqda:
“Chorrahalarda turib qarang,
Qadimgi yo‘llar haqida so‘rang,
Yaxshi yo‘l qayerda ekanligini bilib oling.
O‘sha yo‘ldan yuring,
Shunda ko‘nglingiz taskin topadi.
Ammo sizlar: «Yo‘q, u yo‘ldan yurmaymiz», dedingizlar.
17 Men sizlarga qo‘riqchilar* qo‘ydim,
«Qo‘riqchilar burg‘usining jangovar sadosiga quloq solinglar»,
Deb sizlarga tayinladim.
Sizlar esa: «Ularga quloq solmaymiz!» deb aytdingizlar.
18 Shuning uchun, ey xalqlar, eshiting!
Xalqim ne holga tushishini bilib oling.
19 Ey zamin, quloq sol!
Men bu xalqning boshiga kulfat keltiraman,
Yomon niyatlarining oqibati shudir.
Zotan, ular so‘zlarimga kirmadilar,
Qonunlarimni rad etdilar.
20 Shava yurtidan* keltirilgan ziravorlarni nima qilaman?!
Olis yurtdan olib kelingan xushbo‘y qamishni nimaga ishlataman?!
Xalqimning kuydiriladigan nazrlarini Men qabul qilmayman,
Qurbonliklaridan xushnud bo‘lmayman.”
21 Shu sababdan Egamiz demoqda:
“Men bu xalqning oyog‘iga to‘g‘onoq solaman,
Ular qoqilib yiqiladilar.

Otalar farzandlari bilan birga,
Qo‘shnilar yor–birodarlari bilan birga halok bo‘ladilar.”

Shimoldan bosqinchilar keladi

22 Egamiz shunday demoqda:
“Ana, shimoldagi yurtdan* olomon kelmoqda,
Dunyoning chetidan buyuk bir xalq qo‘zg‘almoqda.
23 Kamonu nayzalar bilan qurollangandir ular,
Shafqat qilmaydigan zolimdir u odamlar.
Ular otlarini yeldiradi,
To‘lqinlangan dengizday guvullab keladi.
Ey qiz Quddus, ular qarshingda saf tortadilar,
Jang qilishga shay bo‘lib turadilar.”

24 Odamlar shunday dedi:
“Ular haqidagi bu xabarni eshitdik,
Madorimiz qolmadi.
Dard tutgan ayol kabi,
Azobu iztirob chekdik.
25 Dalalarga bormanglar,
Ko‘chalarda yurmanglar!
Dushman qilichini tutgan.
Atrofni dahshat qamragan.”

26 Ey xalqim, qizalog‘im!
Qanorga o‘ranib, kulga belangin*.
Yolg‘iz farzand uchun aza tutgandek,
Achchiq–achchiq yig‘lagin.
Ana, halok etuvchi kelyapti,
U to‘satdan bizga hujum qiladi.

27 Egamiz shunday dedi:
“Ey Yeremiyo, xalqimni tekshirgin,
Temirni sinaganday ularni sinagin,
Tutgan yo‘llarini bilib olgin.
28 Ularning hammasi o‘jar va beboshdir,
Birovlarga tuhmat qilib yuradilar.
Bag‘irlari mis va temir kabi qattiq,
Hammasi buzg‘unchilik qiladilar.
29 Ana, bosqonga to‘xtovsiz dam berilmoqda,
O‘choqdagi olov lovullab yonmoqda.
Ammo bunday olov ham ularni tozalay olmadi,
Ular fosiqligicha qoldi.
30 Ularni «sifatsiz kumush» deb ataydilar,
Axir, Men ularni rad etdim.”

7–BOB

Yeremiyo Ma’badda voizlik qiladi

1 Yeremiyoga Egamizning quyidagi so‘zi ayon bo‘ldi: 2 “Uyimning darvozasi oldiga
bor. O‘sha yerda turib, baland ovozda shunday deb ayt: «Ey jamiki Yahudo xalqi! Ey
Egamizga sajda qilish uchun mana bu darvozadan kirayotgan xaloyiq! Egamizning
gaplarini eshitinglar. 3 Isroil xalqining Xudosi — Sarvari Olam shunday demoqda:
yomon yo‘lingizdan qaytinglar. Turmush tarzingizni o‘zgartiringlar. Shundagina bu
yurtda yashashingizga ijozat beraman. 4 ‘Egamizning Ma’badi shu yerda! Mana,
Egamizning Ma’badi, shuning uchun hech qanday xavf–xatar yo‘q!’ degan yolg‘on
so‘zlarga ishonmang.
5 Agar haqiqatan yomon yo‘lingizdan qaytsangiz, turmush tarzingizni o‘zgartirsangiz,
bir–biringizga nisbatan adolatli bo‘lsangiz, 6 musofirlarga, yetim va bevalarga zulm
qilmasangiz, bu yurtda aybsiz odamning qonini to‘kmasangiz, boshingizga falokat
keltiradigan boshqa xudolarga ergashmasangiz, 7 bu yerda qolishingizga ijozat beraman.
Men ota–bobolaringizga abadiy mulk qilib bergan bu yurtda sizlar yashayverasizlar.
8 Ammo sizlar yolg‘on so‘zlarga ishonyapsizlar. 9 O‘g‘rilik qilyapsizlar, odam
o‘ldiryapsizlar, zino qilyapsizlar, yolg‘ondakam qasam ichyapsizlar, Baalga nazrlar atab,
o‘zingiz bilmagan xudolarga ergashyapsizlar. 10 Shunday ekan, nima uchun sizlar
Mening nomim bilan atalgan uyimga* kelib, ‘Biz xavf–xatardan xolimiz!’ deb
aytyapsizlar?! Bunday jirkanch ishlarni davom ettirish uchunmi?! 11 Aytinglar–chi,
Mening nomim bilan atalgan bu uy sizlar uchun qaroqchilar uyasi bo‘lib qoldimi?!
Qilgan barcha ishlaringizni Men O‘z ko‘zim bilan ko‘rib turibman–ku! — deb aytmoqda
Egamiz. 12 — Qani, Shilo‘ shahriga* boringlar! Men ulug‘lanishim uchun ilk bor o‘sha
joyni tanlagan edim. Ammo xalqim Isroilning qabihliklari tufayli o‘sha joyni ne ahvolga
solganimni ko‘rib qo‘yinglar. 13 Bunday yovuz ishlarni qilayotganingizda, Men sizlarga
qayta–qayta gapirdim. Ammo sizlar gaplarimga quloq solmadingiz. Sizlarga xitob
qildim, ammo javob bermadingiz, — deb aytmoqda Egamiz. 14 — Shunday ekan, Men
Shilo‘ni ne ko‘yga solgan bo‘lsam, O‘z nomim bilan atalgan uyimni ham o‘sha ahvolga
solaman. Sizlar umid bog‘lagan bu uyimni va ota–bobolaringizga bergan bu yurtni
Shilo‘ning ahvoliga tushiraman. 15 Qondoshingiz Efrayim* xalqini uloqtirganimday,
sizlarni ham O‘z huzurimdan uloqtirib tashlayman.»”

Xalqning itoatsizligi

16 Egamiz shunday dedi: “Ey Yeremiyo, sen bu xalq uchun ibodat qilma! Ular uchun
faryod qilib, iltijo qilma! Ularni deb, Menga yolvorma! Men senga quloq solmayman.
17 Yahudo shaharlarida, Quddus ko‘chalarida ular nimalar qilayotganini
ko‘rmayapsanmi?! 18 Bolalar o‘tin yig‘ishadi, otalari olov yoqishadi, xotinlar esa xamir
qorib, samo qirolichasiga* atab nonlar yopishadi. G‘azabimni qo‘zg‘atish uchun begona
xudolarga sharob nazrini keltirishadi. 19 Bu qilmishlari bilan ular Menga emas, o‘zlariga
zarar keltirmoqda–ku! — deb aytmoqda Egamiz. — O‘zlarini sharmanda qilishmoqda–
ku! 20 Shu sababdan, Men, Egangiz Rabbiy, aytamanki, Men qahru g‘azabimni bu
zaminga, insonlaru hayvonlarga, daladagi daraxtlaru ekinlarga sochaman. G‘azabim
so‘nmas olovday yonadi.”
21 Isroil xalqining Xudosi — Sarvari Olam shunday demoqda: “Sizlar

qurbonliklarning go‘shtini yeysizlar, kuydiriladigan qurbonliklaringizning go‘shtini ham o‘zlaringiz yeyaveringlar*. 22 Men ota–bobolaringizni Misrdan olib chiqqanimda ularga
nafaqat qurbonliklar va kuydiriladigan qurbonliklarga oid amrlar bergan edim, 23 balki
ularga yana shunday amr bergan edim: «Menga itoat qiling! Shunda Men sizning
Xudoyingiz, sizlar esa Mening xalqim bo‘lasizlar. Faqat Men ko‘rsatgan yo‘ldan
yuringlar, shunda baxtiyor bo‘lasizlar.» 24 Ammo ular itoat qilishni ham, quloq solishni
ham xohlamadilar. Yovuz yuraklarining o‘jarliklariga itoat qildilar. Oldinga yurmay,
orqaga ketdilar. 25 Ajdodlaringiz Misrdan chiqqan kundan boshlab shu kunga qadar,
Men payg‘ambar qullarimni oldingizga ketma–ket jo‘natdim. 26 Ammo sizlar Menga
quloq ham solmadingizlar, e’tibor ham bermadingizlar. O‘jarlikda ota–bobolaringizdan
ham o‘tib tushdingiz, qilgan ishlaringiz ularnikidan ham yovuzroq.”

27 Egamiz shunday dedi: “Ey Yeremiyo, sen borib, aytganlarimning hammasini ularga
yetkazasan, lekin ular senga quloq solishmaydi. Ularga xitob qilasan, ammo ular senga
javob berishmaydi. 28 Shuning uchun sen ularga shunday deb ayt: «Sizning xalqingiz
Egasi Xudoga itoat qilmadi, Uning gapiga kirmadi. Haqiqat qolmabdi, og‘zingizdan haq
so‘z chiqmaydigan bo‘ldi. 29 Ey Quddus aholisi, aza tuting! Sochingizni qirib tashlang*.
Marsiyangiz yalang qirlar uzra nola qilsin. Zero, Egamizning toqati toq bo‘ldi, U bu
naslni rad etib, tashlab ketdi.»”

Xinnum soyligida qilingan gunohlar

30 Egamiz shunday demoqda: “Yahudo xalqi o‘zining Egasi oldida qabihliklar qildi.
Ular Mening nomim bilan atalgan uyimga makruh butlarini o‘rnatdilar. Uyimni harom
qildilar. 31 Shunisi yetmagandek, Xinnum soyligidagi* Tofatda sajdagohlar* qurdilar. U
yerda o‘z o‘g‘ilu qizlarini olovda kuydirdilar. Ammo Men ularga buni amr qilmaganman,
bunaqasini xayolimga ham keltirmaganman. 32 Qarab turing! — deb aytmoqda Egamiz.
— Shunday kunlar keladiki, odamlar bu joyni Tofat yoki Xinnum soyligi deb atamaydi.
Bu joy «Qirg‘in vodiysi» deb nom oladi. U yerda ko‘p murdalar dafn qilinadi, murdalar
ko‘pligidan qabrlarga joy yetmay qoladi. 33 Bu xalqning jasadlari qushlarga va yovvoyi
hayvonlarga yem bo‘ladi, hech kim ularni haydamaydi. 34 Yahudo shaharlarida va
Quddus ko‘chalarida shodu xurramlik sadolari bo‘lmaydi, kelin–kuyovning ovozi
eshitilmaydi. Bu yurt huvullab qoladi.”

8–BOB

1 Egamiz shunday demoqda: “O‘sha vaqtda Yahudo shohlarining suyaklari,
a’yonlarning, ruhoniylarning, payg‘ambarlarning va Quddus aholisining suyaklari
qabrlardan olib chiqiladi. 2 Ularning suyaklari quyosh, oy va yulduzlar ostida sochib
tashlanadi. Zotan, bu odamlar osmon jismlarini sevar edilar, o‘shalarga xizmat qilar
edilar, ularga ergashib, maslahat solar edilar, o‘shalarga sajda etar edilar. Ularning
suyaklarini hech kim yig‘ib ko‘mmaydi, go‘ngday yer ustida yotaveradi. 3 Bu yovuz
naslning omon qolganlarini Men turli joylarga surgun qilaman. O‘shanda ular
yashashdan ko‘ra, o‘limni afzal ko‘radigan bo‘ladilar.” Sarvari Olamning kalomi shudir.

Gunoh va jazo

4 Ularga borib ayt, Egamiz shunday demoqda:

“Yiqilgan odam turmaydimi?!

Yo‘ldan adashgan ortiga qaytmaydimi?!
5 Nima uchun bu xalq Men ko‘rsatgan yo‘ldan ozdi?
Nima uchun Quddus ahli to‘g‘ri yo‘lga qaytmayapti?
Ular yolg‘onga qattiq yopishib oldilar,
Huzurimga qaytishdan bosh tortdilar.
6 Men ularning gaplariga yaxshilab quloq soldim,
Birontasi to‘g‘ri gap aytmaydi.
Hech biri qilmishidan pushaymon bo‘lmaydi,
«Nimalar qilib qo‘ydim?» demaydi.
Ular jangga chopgan otga o‘xshaydilar
O‘z yo‘llaridan qaytmaydilar.
7 Hattoki osmondagi laylaklar
Qaytib kelish vaqtini biladi.
Kaptar, qaldirg‘ochu turnalar*
Mavsumda ko‘chish vaqtiga amal qiladi.
Mening xalqim esa o‘z Egasining
Qonun–qoidalarini bilmaydi.

8 Sizlar: «Biz donomiz» deb aytasiz,
«Bizda Egamizning qonunlari bor», deb maqtanasiz.
Aslida tafsirchilar qalloblik qilib,
Qonunimni o‘zgartirdilar.
9 Bunday donolar sharmanda bo‘ladi,
Sarosimaga tushib, tuzoqqa ilinadi.
Mening so‘zimni rad etganlarni
Dono deb bo‘ladimi?!
10 Shuning uchun ularning xotinlarini boshqalarga beraman,
Dalalarini bosqinchilarga topshiraman.
Zotan, ularning kichigidan tortib, kattasigacha
Nafsini tiyolmay harom yo‘l bilan pul topishadi.
Payg‘ambaridan tortib, ruhoniysigacha —
Hammasi tovlamachilik qilishadi.
11 Xalqimning yaralarini yuzaki davolashadi.
Ahvol og‘ir bir paytda «hammasi yaxshi», deb aytishadi.
12 Jirkanch ishlari uchun ular uyaladilarmi?
Yo‘q, ular uyalmaydilar!
Qizarish degan narsani bilmaydilar.
Shuning uchun boshqalarday halok bo‘ladilar,
Ularni jazolab, xonavayron qilaman,
— deb aytmoqda Egamiz. —
13 Men ularning hosilini tortib olaman.
Toklarida uzum qolmaydi,
Anjir daraxtlari meva tugmaydi,
Barglari to‘kilib xazon bo‘ladi.
Ularga nima bergan bo‘lsam,

Hammasidan judo bo‘lishadi.”
Egamizning kalomi shudir.

14 Yahudo odamlari bir–biriga aytishadi:
“Bu yerda nima qilib o‘tiribmiz, axir?
Qani bo‘linglar, yig‘ilishib,
Mustahkam shaharlarga qochib boraylik,
O‘sha yerda jon taslim qilaylik.
Evoh, Egamizga qarshi gunoh qildik!
Egamiz Xudo bizni o‘limga mahkum etdi,
Zaharli suvdan bizga ichirdi.
15 Biz tinchlikni izladik,
Ammo yaxshilik kelmadi.
Shifo topmoqchi edik,
Ammo vahimaga duchor bo‘ldik.
16 Ana, dushman Dan shahriga yetib keldi*,
U yerdan otlarining pishqirgani eshitilmoqda.
Ayg‘irlarning kishnagani
Butun yurtni titratmoqda.
Dushman yurtimizni yakson qilmoqchi,
Shaharlarni vayron etib, odamlarni o‘ldirmoqchi.”

17 Egamiz shunday demoqda:
“Men orangizga ilonlarni yuboryapman,
Bu zaharli ilonlar* sizlarni chaqadi,
Bu ilonlarni o‘ynatib bo‘lmaydi.”

Yeremiyoning o‘z xalqi uchun tortgan jafosi

18 Qayg‘ularimga tasalli topa olmayapman,
Yurak–bag‘rim ezilib ketdi.
19 Xalqim faryod etmoqda,
Yurt bo‘ylab dod–voylari eshitilmoqda:
“Nahotki Egamiz Quddusni* tark etgan bo‘lsa?!
Nahotki Shohimiz Sionda bo‘lmasa?!”

Egamiz shunday javob berdi:
“Ular butlari bilan qahrimni keltirdilar–ku!
Yaroqsiz begona tasvirlari bilan Meni g‘azablantirdilar–ku!”

20 Xalq esa shunday deb nolimoqda:
“O‘rim vaqti o‘tdi,
Yoz ham tugadi,
Biz esa hanuz qutqarilmadik!”

21 Xalqim tortgan azoblardan ezilib ketdim,
Qayg‘urib, vahimaga tushdim.
22 Nima, Giladda* malham yo‘qmidi?!

Tabib yoʻqmidi?!
Unday boʻlsa, nega xalqim shifo topmayapti?

9–BOB

1 Koshkiydi, boshim bir buloq boʻlsa,
Koʻzlarim yoshlar chashmasi boʻlsa.
Xalqim halokatga uchragani uchun,
Kechayu kunduz yigʻlagan boʻlar edim!
2 Qaniydi, sahroda bir qoʻnolgʻam boʻlsa,
Men xalqimni tark etgan boʻlardim,
Ularning orasidan chiqib ketardim!
Axir, ularning hammasi zinokor, xoinlar toʻdasidir.

3 Egamiz shunday demoqda:
“Xalqim tillarini kamon kabi qayirib,
Yolgʻon soʻzlarni oʻqdek otishadi.
Xalqim nohaqlik qilib, yurtda kuchayib bormoqda,
Yomonlik ketidan yomonlik qilmoqda,
Ular Meni tan olmaydilar.

4 Qoʻshningizdan ehtiyot boʻling,
Qarindoshingizga ishonmang.
Hamma qarindoshingiz yolgʻonchi*,
Hamma qoʻshningiz tuhmatchi.
5 Qoʻshni qoʻshnisini aldaydi,
Birontasi toʻgʻri gap gapirmaydi.
Tili yolgʻon gapirishga oʻrganib qolgan.
Holdan toyguncha gunoh qilishadi.
6 Ey Yeremiyo, sen yolgʻonchilar orasida yashayapsan,
Ular yolgʻonlari dastidan
Meni tan olishni xohlamayaptilar.”
Egamizning kalomi shudir.

7 Shu sababdan Sarvari Olam demoqda:
“Men xalqimni sinovdan oʻtkazib, poklayman.
Ularni boshqa nima ham qilar edim?!
8 Ularning tili halokat keltiradigan oʻqqa oʻxshaydi,
Ogʻzidan faqat yolgʻon soʻzlar chiqadi.
Qoʻshnilariga shirin gapirishadi,
Ichlarida esa ularni tuzoqqa tushirmoqchi boʻlishadi.
9 Shunday ekan, bu qilmishlari uchun ularni jazolamaymi?!
Shunday bir xalqdan oʻch olmaymi?!”
Egamizning kalomi shudir.

10 Men togʻlar uchun faryod qilib, yigʻlayman,

Dashtdagi yaylovlar uchun marsiya aytaman,
Chunki yaylovlarning hammasi qurib qolgan.
U yerdan hech kim o‘tmaydi,
Sigirlarning ma’rashi eshitilmaydi.
Qushlaru hayvonlar bu yerlarni tark etgan.

11 Egamiz shunday dedi:
“Men Quddusni vayron qilaman,
Bu yerni chiyabo‘rilarning makoniga aylantiraman.
Yahudo shaharlari huvullab qoladi,
U yerda bironta ham odam qolmaydi.”

12 Men Egamizdan so‘radim:
— Ey Egam, nechun bu yurt shu qadar vayron bo‘lib ketdi? Nechun sahro kabi huvullab qoldi? U yerda bironta ham sayyoh ko‘rinmaydi. Qaysi farosatli odamning bunga aqli yetadi?! Sen bularni kim orqali xalqqa yetkazasan?
13 Egamiz shunday javob berdi:
— Men xalqimga qonunlar bergan edim, lekin ular rad etdilar, Menga itoat etmadilar, qonunlarimga rioya qilmadilar. 14 Aksincha, yuraklarining o‘jarliklariga itoat qildilar, ota–bobolari o‘rgatgandek Baalga sig‘indilar. 15 Shuning uchun Men bu xalqqa achchiq o‘tdan yedirib, zaharli suvdan* ichiraman, — deb aytmoqda Isroil xalqining Xudosi — Sarvari Olam. 16 — O‘zlari va ota–bobolari bilmagan xalqlar orasiga Men ularni tarqatib yuboraman. Ularning ketidan qilich jo‘natib, qirdirib tashlayman.

Quddus aholisi aza tutadi

17 Sarvari Olam shunday demoqda:
“Endi quloq soling!
Yig‘ichi ayollarni* chaqirib keling,
Ularning eng mohirlari kelsin.”

18 Xalq shunday dedi:
“Ularga ayting, tezroq kelsin.
Biz uchun marsiya aytishsin,
Ko‘zimizdan yoshlar oqsin,
Kipriklarimizdan suvlar to‘kilsin.
19 Ana, Quddusdan* faryod eshitilmoqda:
«Xonavayron bo‘ldik!
Qanday sharmandagarchilik!
Yurtimizni tark etishga majburmiz,
Uylarimiz vayron bo‘ldi.»”

20 Ey ayollar, Egamizning so‘zini eshiting,
Uning og‘zidan chiqqan har bir so‘ziga quloq soling.
Qizlaringizga marsiya aytishni o‘rgating,
Bir–biringizga yig‘i qo‘shig‘ini yodlating.
21 Ana, derazalardan o‘lim o‘rmaladi,

Qal’alarimizga kirib oldi.
Ko‘chalardagi bolalarni yo‘q qilib tashladi,
Maydonlardagi yoshlarni qirib yubordi.
22 Ey ayollar, sizlar ayting:
“Egamiz shunday demoqda:
«Odamlarning jasadlari yotadi
Daladagi go‘ng kabi
O‘roq solingan bug‘doy kabi,
Ularni hech kim yig‘ishtirib olmaydi.»”

23 Egamiz shunday deb aytmoqda: “Donolar donoligi bilan maqtanmasin. Kuchlilar kuchi bilan maqtanmasin. Boylar boyligi bilan maqtanmasin. 24 Kim maqtanmoqchi bo‘lsa, Egamizni bilaman, deb maqtansin, Egamizni tushunaman, deb maqtansin. Men Egangizman. Men mehr–shafqat ko‘rsataman, yer yuzida adolatu haqiqat ila ish tutaman. Bunday qilishdan Men zavqlanaman.” Egamizning kalomi shudir.
25 Egamiz demoqda: “Shunday kunlar keladiki, badani sunnat qilingan, ammo yuragi sunnat qilinmagan odamlarning* hammasini Men jazolayman. 26 Ha, Men Misrliklarni, Edom naslini, Ommon xalqini, Mo‘abliklarni, sochini oldirib yuradigan* cho‘l qabilalarining hammasini* va ular bilan birga O‘z xalqim Yahudoni jazolayman. Aslida, bu xalqlarning hammasi sunnatsiz, ularning yuragi sunnat qilinmagan.”

10–BOB

Butlar haqida

1 Ey Isroil xalqi, Egamiz sizlarga aytayotgan so‘zlarga quloq soling. 2 Egamiz shunday demoqda:

“Boshqa xalqlarga taqlid qilmanglar,
Boshqa xalqlar singari,
Osmondagi alomatlardan qo‘rqmanglar.
3 Xalqlarning udumlari behuda!
Ular o‘rmondan daraxt kesadi,
Hunarmand boltasi bilan unga shakl berib,
4 Kumushu oltin bilan bezatadi.
Yiqilib ketmasin deya, mix bilan mahkamlaydi,
5 Butlari polizdagi qo‘riqchilarga o‘xshaydi.
Ular gapira olmaydi.
Ularni ko‘tarib yurish kerak bo‘ladi,
O‘zlari yura olmaydi.
Ulardan qo‘rqmanglar,
Ularning qo‘lidan hech qanday yomonlik kelmaydi,
Yaxshilik ham qila olmaydi.”

Yeremiyo Xudoning sha’niga hamdu sanolar aytadi

6 Ey Egamiz, Senga o‘xshashi yo‘q!
Sen buyukdirsan,

Sening noming ulug‘ va qudratlidir.
7 Ey ellarning Shohi,
Sendan qo‘rqmaydigan biror zot bormi?!
Sen bunga loyiqdirsan.
Xalqlarning donishmandlari orasida,
Ularning shohlari orasida
Senga o‘xshashi yo‘q.
8 Donishmandlariyu shohlari* ahmoq va befarosat.
Ular betayin yog‘och butlaridan maslahat olishadi.
9 Butlarini yasash uchun kumushni Tarshishdan,
Oltinni Ufazdan keltirishadi.
Butlarni hunarmandu zargarlar yasagan.
Ko‘k va safsar liboslar bilan bezagan,
Hammasi — mohir ustalarning ishidir.
10 Ammo Egamiz haq Xudodir.
U barhayot Xudo va abadiy Shohdir.
G‘azablanganda yer silkinadi,
Uning qahriga xalqlar dosh bera olmaydi.

11 Egamiz shunday dedi: “Boshqa xalqlarga ayt: «Bu xudolar yeru osmonni yaratmagan. Ular yer yuzidan va osmon ostidan yo‘q bo‘lib ketadi.»”*

12 Egamiz qudrati ila yerni yaratdi,
Donoligi ila dunyoni bunyod etdi,
Idroki ila osmon gumbazini o‘rnatdi.
13 Uning ovozidan osmondagi suvlar gulduraydi,
U dunyoning to‘rt burchidan bulutlarni olib keladi.
Yomg‘ir yog‘dirganda chaqmoq chaqtiradi,
Omborlaridagi shamollardan estiradi.
14 Uning oldida hamma odamlar ahmoq va nodondir.
Zargarlar yasagan butlari tufayli sharmanda bo‘lishadi.
Yasagan sanamlari soxtadir, ularning joni yo‘q.
15 Bu betayin butlar aldamchidir.
Ularni jazolaganim zahoti yo‘q bo‘lishadi.
16 Yoqubning Xudosi esa unday emas.
Butun borliqni U yaratgan,
Isroil qabilasini O‘ziga mulk qilgan.
Uning nomi Sarvari Olamdir.

Surgun vaqti yaqinlashib kelmoqda

17 Ey qurshovda yashayotganlar!
Bor–budingizni yig‘ishtirib oling.
18 Zero, Egamiz shunday demoqda:
“Men sizlarni Isroil yurtidan uloqtirib tashlayman,
Boshingizga kulfat yog‘diraman,
Toki sizlar buni sezinglar.”

19 Sho‘rim qursin! Shunchalik azoblarga qoldim!
Og‘ir yaralangan ekanman.
Ammo o‘zimga o‘zim: “Boshimda shu dard bor ekan,
Unga chidashim kerak”, dedim.
20 Chodirim yiqitilgan, iplari uzib tashlangan.
Farzandlarim ketdi, ular yo‘q bo‘ldi.
Endi chodirimni kim tikadi?!
Chodirimning pardalarini kim osadi?!
21 Axir, cho‘ponlar ahmoq,
Ular Egamizdan maslahat olmadilar.
Shuning uchun ham ishlari o‘ngidan kelmadi,
Qo‘ylari har yoqqa tarqalib ketdi.

22 Eshitinglar! Bir xabar kelmoqda!
Ana, shimoldan* shovqin–suron ko‘tarilmoqda!
Lashkarlar Yahudo shaharlarini xarob qilar emish,
Chiyabo‘rilar yashaydigan makonga aylantirar emish.

Yeremiyo ibodat qiladi

23 Ey Egam, bilaman,
Odam zoti o‘z taqdirini o‘zi belgilay olmaydi,
O‘z qadami o‘zining ixtiyorida emas.
24 Ey Egam, meni jahl ustida jazolamagin.
Adolating ila haq yo‘lga solgin,
Aks holda, meni yo‘q qilib yuborasan.

25 Seni tan olmaydigan xalqlar ustiga qahringni soch,
Senga sajda qilmaydigan ellar ustiga soch,
Axir, ular Yoqub naslining boshini yedilar.
Hammasini halok etib, yo‘q qildilar,
Yurtini xarobazorga aylantirdilar.

11–BOB

Yeremiyo va ahd

1 Yeremiyoga Egamizning quyidagi so‘zi ayon bo‘ldi: 2 “Mening Isroil xalqi bilan
tuzgan ahd shartlarimga quloq sol. Bularni Yahudo xalqi va Quddus aholisiga yetkaz.
3 Ularga ayt: «Isroil xalqining Xudosi — Egamiz shunday demoqda: ushbu ahd
shartlariga rioya qilmagan har bir odam la’nati bo‘lsin! 4 Men ota–bobolaringizni
Misrdan, o‘sha temir o‘choq ichidan olib chiqqan edim. Ularga, gaplarimga quloq
solinglar, hamma amrlarimni bajaringlar, deb aytgan edim. Agar shunday qilsangiz,
sizlar Mening xalqim bo‘lasiz, Men esa sizning Xudoyingiz bo‘laman, deb aytdim. 5 Men
ota–bobolaringizga bergan qasamimni bajarish uchun shu so‘zlarni aytgan edim. Mana,
Men ularga va’da qilgan, sut va asal oqib yotgan yurtda* sizlar yashab yuribsizlar.»”
“Omin, ey Egam, aytganing kelsin”, dedim men.

6 Egamiz menga shunday dedi: “Aytadigan gaplarimning hammasini Yahudo
shaharlarida va Quddus ko‘chalarida shunday deb e’lon qilgin: ushbu ahdning
shartlarini eshitinglar, ularga rioya qilinglar. 7 Men ota–bobolaringizni Misrdan olib
chiqqanimdan beri ularni ogohlantirib keldim. Ularga: «Mening gaplarimga quloq
solinglar», deb qayta–qayta aytdim. 8 Ammo ular itoat qilmadilar, Menga quloq
solmadilar. Aksini qilib, yovuz yuraklarining o‘jarliklariga itoat etdilar. Shuning uchun
ahdda yozilgan hamma la’natlarni ularning boshiga soldim. Men ularga buyurgan
ahdimning shartlarini bajarmaganlari uchun shunday qildim.”
9 Egamiz menga dedi: “Yahudo xalqi va Quddus aholisi Menga qarshi fitna
uyushtirishmoqda. 10 Ular ota–bobolarining eski gunohlariga qaytishdi. Ota–bobolari
singari, gaplarimga quloq solmay, begona xudolarga ergashib, sajda qilishdi. Yahudo
xalqi Isroil xalqiga* taqlid qildi, Men ota–bobolari bilan tuzgan ahdimni ular buzishdi.
11 Shuning uchun ularning boshlariga shunday kulfat keltiramanki, birontasi ham
qutulib qololmaydi, — deb aytmoqda Egamiz. — Menga iltijo qilishsa ham, ularning
iltijolariga quloq solmayman. 12 O‘shanda Yahudo xalqi bilan Quddus aholisi o‘z
xudolariga iltijo qilishadi. Ular bu xudolariga qurbonliklar keltirishar edi. Ammo kulfat
kuni o‘sha xudolari ularni aslo qutqarolmaydi. 13 Ey Yahudo xalqi, shaharlaringiz soni
qancha bo‘lsa, xudolaringiz ham shunchadir. Quddusdagi ko‘chalar qancha ko‘p bo‘lsa,
qurbongohlaringiz ham shunchadir. Sizlar bu qurbongohlarni jirkanch Baalga
qurbonliklar keltirish uchun qurgandingizlar.
14 Ey Yeremiyo, sen bu xalq uchun ibodat qilma. Ular uchun iltijo qilib yolvorma.
Ularning boshlariga kulfat tushib, iltijo qilganlarida, Men ularga quloq solmayman.
15 Aziz xalqim shuncha jirkanch ishlar qildi. Endi uyimga kirishlariga nima haqlari bor?!
Va’dalaru qurbonliklar bilan kulfatning oldini olib bo‘larmidi?! Axir, xalqim qabihliklar
qilayotganidan sevindi–ku!”
16 Egamiz O‘z xalqini “Yaxshi meva beradigan, maftunkor yam–yashil zaytun daraxti”
deb atagan edi. Ammo endi Egamiz bo‘ronning dahshatli tovushi ostida daraxtga o‘t
qo‘yadi, uning shox–shabbalari yonib ketadi. 17 Bu daraxtni ekkan Sarvari Olamning O‘zi
uni yo‘q qilishga amr berdi. Zero, Isroil va Yahudo xalqlari qabihliklar qildilar. Baalga
qurbonliklar keltirib, Xudoni g‘azablantirdilar.

Yeremiyoning joniga qasd qilishadi

18 Egamiz menga dushmanlarimning fitnasini ayon qildi. Egamiz ularning yovuz
qilmishlarini ko‘rsatgani uchun, men bu haqda xabar topdim. 19 Men bo‘g‘izlanishga olib
ketilayotgan yuvosh qo‘ziday bo‘lgan ekanman. Dushmanlarim menga qarshi fitna
uyushtirganlarini payqamagan ekanman. Ular shunday deb aytishgan edi: “Daraxt va
uning mevalari kesilganday, kelinglar, uni ham bu dunyodan daf qilaylik, uning
xotirasini o‘chiraylik!”

20 Ey Sarvari Olam,
Sen adolat bilan hukm qilasan,
Insonning yuragini, xayollarini sinaysan.
Dushmanlarimdan o‘ch olganingni ko‘ray,
Da’voimni O‘zing hal qil!

21 Shunda Egamiz menga dedi: “Ey Yeremiyo, Onoto‘t* aholisi senga: «Egamizning

nomidan gapirma, bo‘lmasa o‘lasan», deb aytib yurishibdi. 22 Ammo Men, Sarvari Olam,
aytamanki, ularni jazolayman! Yigitlari qilichdan o‘ladi. O‘g‘il–qizlari qahatchilikdan
nobud bo‘ladi. 23 Ularning birontasi omon qolmaydi. Belgilangan vaqtda Onoto‘t
aholisining boshiga kulfat keltiraman.”

12–BOB

Yeremiyo Egamizga savollar beradi

1 Sen bilan da’volashganimda, ey Egam,
Sen har doim haq bo‘lib chiqasan.
Shunday bo‘lsa–da, Sen bilan yana gaplashmoqchiman,
Adolat xususida savol bermoqchiman.
Nechun fosiqlarning ishi yurishadi?
Nechun munofiqlar rohatda yashaydi?
2 Ularni Sen ekib undirding,
Ular o‘sib hosilga kirdilar.
Noming ularning og‘zidan tushmaydi,
Ammo dillari Sendan uzoqdir.
3 Lekin Sen, ey Egam, meni bilasan.
Sen meni sinagansan,
Dilim Senga moyil ekanini O‘zing ko‘rding.
Endi yovlarimni bo‘g‘izlanadigan qo‘ylarday sudragin!
Bo‘g‘izlashga tayyorlash uchun ajratib qo‘ygin!

4 Evoh, qachongacha yer qaqrab yotadi?
Qachongacha dalalardagi hamma o‘tlar quriydi?
Bu yerda yashaydigan fosiqlarning dastidan,
Qushlaru hayvonlar nobud bo‘ldi.
Bu odamlar: “Bizga nima bo‘lishini
Yeremiyo qayerdan ham bilardi?!”* deb aytishadi.

5 Egamiz menga dedi: “Ey Yeremiyo,
Sen odamlar bilan poyga qilib holdan toygan bo‘lsang,
Qanday qilib otlar bilan poyga qila olasan?!
Faqat osoyishta yurtda o‘zingni bexatar sezsang,
Iordan bo‘yidagi chakalakzorda* nima qilasan?!
6 Hatto qarindoshlaring ham sendan yuz o‘girdi,
O‘z oilang senga xiyonat qildi.
Ovozi boricha senga do‘q urdi.
Ular senga shirin gapirishsa ham,
Ularning so‘zlariga ishonma.”

Egamiz O‘z xalqi uchun qayg‘uradi

7 Egamiz shunday deb aytdi:
“Men xonadonimni tark etdim,
Mulk qilib olgan xalqimni rad etdim.

Sevgan xalqimni dushmanlarining qo‘liga berdim.
8 O‘z xalqim Menga
O‘rmondagi sherday bo‘lib qoldi.
U Menga qarab bo‘kirdi,
Shuning uchun undan nafratlandim.
9 O‘z xalqim Menga
Olachipor kalxatday bo‘lib qoldi.
Boshqa kalxatlar xalqimni o‘rab oldi!
Boring, barcha yovvoyi hayvonlarni yig‘ing,
Xalqimni g‘ajib tashlashsin.
10 To‘da–to‘da cho‘ponlar uzumzorimni xarob qildilar,
Dalamni ular payhon qildilar.
Ha, go‘zal dalamni tashlandiq cho‘lga aylantirdilar.
11 Ular yerimni xarob qildilar,
Tashlandiq yerim ko‘z oldimda qaqrab yotibdi.
Butun yurtim vayron bo‘ldi,
Ammo bu bilan hech kimning ishi yo‘q.
12 Bosqinchilar sahrodagi
Hamma yalang qirlarni egallab oldilar.
Endi Mening qilichim butun yurtni vayron qiladi,
U boshidan bu boshigacha hammani qirib tashlaydi.
Bexatar yashayotgan bironta odam qolmaydi.
13 Mening xalqim bug‘doy ekdi,
Ammo tikan o‘rib oldi,
Zo‘r berib ishladi,
Ammo hech narsaga erishmadi.
Qattiq qahrim ularning hosilini nobud qildi.
Ular hosilsiz qolib, sharmanda bo‘lishdi.”

Egamiz qo‘shni xalqlarga va’da beradi

14 Egamiz shunday demoqda: “Men xalqimga Isroil yurtini mulk qilib bergan edim, ammo uning yovuz qo‘shnilari xalqimga hujum qilib, yurtimni talon–taroj qildilar. Men bu yovuz xalqlarni o‘z yurtlaridan sug‘urib tashlayman. Yahudo xalqini ularning iskanjasidan sug‘urib olaman. 15 O‘sha yovuz xalqlarni sug‘urib tashlaganimdan keyin, ularga yana rahm–shafqat qilaman. Hammasini o‘z yurtlariga, o‘z mulklariga qaytarib olib kelaman. 16 Ilgari bu xalqlar Isroil xalqiga Baal nomi bilan qasam ichishni o‘rgatgan edilar. Agar endi ular xalqim Isroilning yo‘lini astoydil o‘rgansalar, «Egamiz shohid» deya Mening nomim bilan qasam ichsalar, xalqim orasida o‘rnashib oladilar. 17 Bordi–yu, bironta xalq Menga itoat etmasa, o‘sha xalqni tag–tomiri bilan qo‘porib tashlayman.” Egamizning kalomi shudir.

13–BOB

Zig‘ir tolasidan to‘qilgan qiyiqcha

1 Egamiz menga shunday dedi: “Bor, o‘zing uchun zig‘ir qiyiqcha sotib ol. Uni belingga bog‘la, ammo suvga tekkizma.” 2 Egamizning amriga binoan, men qiyiqcha sotib

olib, belimga bog‘lab oldim. 3 Keyin Egamiz menga shu so‘zini ayon qildi: 4 “Sotib olgan
belingdagi qiyiqchani qo‘lingga olgin–u, Poro anhorining* bo‘yiga tush. Qiyiqchani
qoyaning yoriq joyiga yashirib qo‘y.” 5 Men Egamiz buyurganidek qildim. Qiyiqchani
Poro anhorining bo‘yiga yashirib qo‘ydim. 6 Oradan ancha kun o‘tgandan so‘ng, Egamiz
menga shunday dedi: “Qani, Poro anhorining bo‘yiga bor, Mening amrimga binoan, u
yerga yashirib qo‘ygan qiyiqchangni olib kel.” 7 Shunda men borib, qiyiqchani o‘zim
yashirib qo‘ygan joydan kovlab oldim. Ammo qiyiqcha chirib ketgan, hech narsaga
yaramaydigan bo‘lib qolgan edi.

8 Shunda Egamiz menga O‘z so‘zini ayon qildi. 9 Egamiz shunday demoqda: “Men
Yahudo xalqining mag‘rurligini va Quddus aholisining takabburligini qiyiqcha kabi
chiritaman. 10 Bu fosiq xalq so‘zlarimni eshitishdan bosh tortdi, yovuz yuragining
o‘jarliklariga itoat qildi. Begona xudolarga ergashdi, ularga xizmat qilib, sajda etdi. Ular
o‘sha chirib ketgan qiyiqcha kabi, hech narsaga yaramaydigan bo‘lib qoladilar.
11 Qiyiqcha odamning beliga yopishib turgani kabi, Men jamiki Isroil va Yahudo
xalqlarini O‘zimga yaqin tutar edim: ular Mening xalqim bo‘lishadi, Menga shon–
shuhrat, olqishlar va sharaf keltirishadi deb, shunday qilgan edim. Ammo ular Menga
quloq solmadilar.” Egamizning kalomi shudir.

Sharob uchun meshlar

12 Isroil xalqining Xudosi — Egamiz menga shunday dedi: “Ey Yeremiyo, xalqqa ayt:
«Sharob meshlari sharob bilan to‘ldirilishi kerak.» Bordi–yu, ular senga: «Sharob
meshlari sharob bilan to‘ldirilishi kerakligini o‘zimiz ham bilamiz», deb aytishsa, 13 sen
ularga shunday deb javob ber: «Egamiz demoqda: Men bu yurtdagi hamma odamlarni
mast* qilaman. Dovud taxtida o‘tirgan shohdan tortib, ruhoniylar, payg‘ambarlar va
Quddusning butun aholisigacha — hammasini mast qilaman. 14 Men ularni bir–birlariga,
ota–onalarni bolalariga qarshi qilib qo‘yaman, — deb aytmoqda Egamiz. — Ularni
ayamay yo‘q qilib tashlayman, ularga achinmayman, rahm–shafqat qilmayman.»”

Yeremiyo takabburlik oqibatlari haqida ogohlantiradi

15 Eshitinglar, quloq solinglar,
Katta ketmanglar,
Zotan, Egamiz gapirmoqda.
16 Xudo ustingizga zulmat yubormasdan oldin,
Qorong‘i qirlarda qoqilmasingizdan oldin,
Egangiz Xudoni ulug‘lang.
Aks holda, siz kutayotgan yorug‘likni
U zulmatga aylantiradi,
O‘sha yorug‘likni tim qorong‘i qiladi.
17 Agar siz gaplarimga quloq solmasangiz,
Mag‘rurligingiz uchun qalbim pinhon yig‘laydi.
Men achchiq–achchiq ko‘z yosh to‘kaman,
Axir, Egamizning qo‘ylari
Asirlikka olib ketiladi.

18 Egamiz menga dedi:
“Shohga va ona malikaga* shunday degin:

«Taxtdan tushinglar,
Axir, chiroyli tojingiz
Boshingizdan tushib ketdi.»
19 Nagav cho‘lidagi shaharlar berkitilgan,
Darvozalarni ochadigan kimsa yo‘q.
Yahudo xalqi asirlikka olib ketildi,
Ha, butun xalq surgun qilindi.”

20 Ey Quddus, shimoldan kelayotganlarga bir qara!
Qani sening chiroyli qo‘ylaring?
Qani senga topshirilgan suruving?
21 Sen ittifoqdoshlaringga o‘zing ustozlik qilgan eding,
Egamiz o‘shalarni boshingga chiqarganda, nima der ekansan?
Shunda sen to‘lg‘oq tutgan ayolday bo‘lib qolasan–ku!
Dard azobida qolib ketasan–ku!
22 “Nega bular boshimga tushdi?” dersan.
Sen ko‘p gunoh qilding,
Etaging ko‘tarildi, xo‘rlanding.
23 Habashistonlik* o‘z terisining rangini o‘zgartira oladimi?!
Qoplon o‘z terisidagi xollarini yo‘qota oladimi?!
Shu singari, sizlar ham yaxshilik qila olmaysizlar,
Yomonlik qilishga odatlanib qolgansizlar!

24-25 Egamiz shunday deb aytmoqda:
“Garmsel* somonni to‘zg‘itganday,
Men sizlarni sochib tashlayman.
Bu sizlarning qismatingizdir,
Men boshingizga yog‘diradigan kulfat shudir.
Sizlar Meni unutdingizlar,
Soxta xudolarga inondingizlar.
26 Men ko‘ylagingiz etagini baland ko‘taraman,
Sharmandangizni chiqaraman.
27 Dalalarda, qirlarda qilgan
Jirkanch ishlaringizni Men ko‘rdim,
Zino va shahvoniy qiyqiriqlaringizni eshitdim.
Uyatsizlarcha qilgan fohishabozligingizning guvohi bo‘ldim*.
Ey Quddus, holingga voy!
Qachongacha bulg‘anib yurasan?!”

14–BOB

Dahshatli qurg‘oqchilik

1 Yeremiyoga Egamizning qurg‘oqchilik haqidagi so‘zi ayon bo‘ldi:

2 “Yahudo aza tutmoqda,
Shaharlari adoyi tamom bo‘ldi.

Odamlar qayg‘uga botgan,
Bag‘irlarini yerga berib yotibdi,
Quddusdan faryod ko‘tarilmoqda.
3 Asilzodalar xizmatkorlarini suvga yubordilar.
Xizmatkorlar sardobalarga borgan edilar,
Ammo suv topa olmadilar.
Idishlari bo‘m–bo‘sh qaytib keldilar.
Ular tushkunlikka tushdilar,
Sharmanda bo‘lib qoldilar,
Uyatdan yuzlarini berkitib oldilar.
4 Yomg‘ir yog‘magani uchun yer yorilib ketdi,
Dehqonlar umidsizlikka tushdi,
Yuzlarini berkitib olishdi.
5 Hatto cho‘ldagi ona ohu ham,
O‘t–o‘lan bo‘lmagani uchun,
Yangi tug‘ilgan ohuchalarini tashlab ketmoqda.
6 Qulonlar yalang qirlarda turib,
Chiyabo‘rilar kabi hansirayapti,
O‘t yo‘qligidan qulonlarning ko‘zlari kirtayib qolgan.”

7 Gunohlarimiz bizga qarshi guvohlik bersa–da,
O‘z noming haqi–hurmati bizga rahm qil, ey Egam.
Axir, biz Senga ko‘p xiyonat qildik,
Senga qarshi gunoh ishlar qildik.
8 Ey Isroilning yolg‘iz umidi,
Kulfat vaqtida Qutqaruvchisi!
Nechun yurtimizda musofirga o‘xshaysan?
Bir kechagina tunaydigan sayyohga o‘xshaysan?
9 Nega sarosimaga tushgan odamga o‘xshaysan?
Nega yordam bera olmaydigan jangchiga o‘xshaysan?
Ey Egam, Sen bizning oramizdasan–ku!
Biz Senikimiz.
Bizni tark etma!

10 Egamiz bu xalq haqida shunday demoqda:
“Ular o‘zlarini sira tiya olmaydilar,
Daydib yurishni haqiqatan yaxshi ko‘radilar.
Shuning uchun Men ulardan rozi emasman,
Endi qabihliklarini yodga olaman,
Gunohlari uchun ularni jazolayman.”

11 So‘ng Egam menga tayinlab dedi:
— Bu xalq uchun ibodat qilma. 12 Ular ro‘za tutishsa ham, Men ularning iltijolariga quloq solmayman. Menga atab qurbonliklar kuydirishsa ham, don nazrlarini olib kelishsa ham qabul qilmayman. Aksincha, ularni qahatchilik, urush va o‘lat orqali qirib

tashlayman.
13 Men esa shunday dedim:
— Yo Egam Rabbiy, payg‘ambarlar bu xalqqa, urush va qahatchilik bo‘lmaydi, sizlar bu yurtda chinakamiga osoyishta hayot kechirasizlar, deb aytishmoqda–ku.
14 Egamiz menga shunday javob berdi: “Payg‘ambarlar Mening nomimdan yolg‘on gapirishmoqda. Men ularni yubormaganman, ularga gapirishni buyurmaganman. Ular sizlarga uydirmalarni o‘zlaricha bashorat qilishyapti, behuda fol ochib, xayollariga kelgan yolg‘onlarni gapirishyapti. 15 O‘sha payg‘ambarlar Mening nomimdan gapirishsa ham, ularni Men jo‘natmaganman. Ular: «Yurtda urush va qahatchilik bo‘lmaydi», deb aytayotgan ekanlar, ammo Men aytamanki, o‘sha payg‘ambarlar urush va qahatchilikdan nobud bo‘lishadi. 16 Ularning gaplarini tinglayotgan odamlar ham urush va qahatchilikdan o‘ladi. Jasadlari Quddus ko‘chalarida qolib ketadi. Ularning, xotinlarining, o‘g‘il–qizlarining jasadlarini ko‘madigan odam bo‘lmaydi. Qilgan qabihliklarini Men o‘zlarining boshlariga solaman.
17 Sen ularga shunday deb ayt:

«Kechayu kunduz ko‘zlarimdan yosh oqyapti,
O‘zimni to‘xtata olmayapman.
Zero, bokira qizim — Mening xalqim,
Qattiq zarba yedi, og‘ir yaralandi.
18 Dalaga chiqaman,
Evoh, ana, qilichdan halok bo‘lganlar yotibdi.
Shaharga kiraman,
Ana, ocharchilikdan o‘lganlar yotibdi.
Payg‘ambaru ruhoniylar esa pul dardida
Odamlarga bema’ni maslahatlar berib yuribdilar*.»”

Yeremiyo Xudoga iltijo qiladi

19 Ey Egamiz, nahotki Yahudoni butunlay rad etgan bo‘lsang?!
Nahotki Quddusdan* hazar qilsang?!
Nechun bizni og‘ir yaralading?
Shifo topa olmayapmiz–ku!
Biz tinchlikni izladik, ammo yaxshilik kelmadi,
Shifo topmoqchi edik, ammo vahimaga duchor bo‘ldik.
20 Ey Egamiz, Senga qarshi gunoh qildik!
Qabihliklarimizga iqror bo‘ldik,
Ha, ota–bobolarimizning ayblarini tan olamiz.
21 Noming haqi–hurmati bizni rad etma,
Ulug‘vor taxting turgan joyni xor qilma.
Biz bilan tuzgan ahdingni yodingda tut,
O‘tinamiz, ahdingni buzma.
22 Xalqlarning betayin butlari yomg‘ir yog‘dira olarmidi?!
Yog‘ingarchilik osmonning xohishi bilan bo‘larmidi?!
Bularni qilishga qodir Sen emasmi, ey Egamiz Xudo?!
Biz umidimizni Senga bog‘laganmiz,
Zotan, bularning hammasini qila oladigan Sensan.

15–BOB

Yahudo xalqining qismati

1 Egamiz menga dedi: “Hatto Muso bilan Shomuil huzurimda turib, yolvorganda ham,
Men bu xalqqa achinmagan bo‘lardim. Bu xalqni huzurimdan hayda! Yo‘qolishsin! 2 Ular
sendan «Qayerga boramiz?» deb so‘rashsa, ularga ayt, Egamiz shunday demoqda:

«Hamma peshanasida borini ko‘rsin,
Ba’zilar o‘latga yo‘liqib nobud bo‘lsin,
Ba’zilar qilichdan o‘tkazilsin,
Ba’zilar ochlikdan qirilib ketsin,
Ba’zilar asirlikka tushib, surgun qilinsin.»”

3 Egamiz demoqda: “Ularning boshiga to‘rt xil baloyu ofatni keltiraman: ular
qilichdan halok bo‘lishadi, jasadlarini itlar sudraydi, qushlar va yovvoyi hayvonlar
ularni g‘ajib tashlaydi. 4 Hizqiyo o‘g‘li Manashe Yahudo shohligi taxtida o‘tirib, Quddusda
ko‘p qabihliklar qilgan edi*. O‘sha qabihliklar tufayli dunyodagi barcha shohliklar
xalqimdan hazar qiladigan bo‘ladi.”

5-6 Egamiz shunday demoqda:
“Ey Quddus, kim senga achinar ekan?!
Kim sen uchun motam tutar ekan?!
Birontasi senga kelib,
Hol–ahvol so‘rarmikan?!
Sen Meni rad etding,
Menga orqa o‘girding.
Senga rahm qilaverib charchadim.
Endi senga qarshi qo‘l ko‘taraman,
Seni yo‘q qilib yuboraman.
7 Men seni yurtning har bir shahrida
Bug‘doyni sovurganday sovuraman.
Seni farzandlaringdan judo qilaman.
Ey xalqim, seni nobud etaman,
Axir, sen o‘z yo‘lingdan qaytmading.
8 Men bevalaringni dengiz qumidan ham ko‘p qilaman,
Yigitlaringning onalariga qarshi
Kuppa–kunduz kuni qirg‘in qiluvchini jo‘nataman.
To‘satdan boshlariga dahshat va azob–uqubat solaman.
9 Yetti farzandning onasi holdan toyib, jon beradi.
Uning quyoshi kunduz kuni botadi,
U xo‘rlanib, sharmanda bo‘ladi.
Omon qolganlari dushman qilichidan o‘ladi.”
Egamizning kalomi shudir.

Yeremiyo Egamizga shikoyat qiladi

10 Sho‘rim qursin! Nega onam meni dunyoga keltirgan ekan–a?! Men butun yurt bilan

tortishib, janjallashyapman. Qarz olmagan, qarz bermagan bo‘lsam ham, hamma meni qarg‘amoqda.
11 Egamiz shunday dedi: “Ey Quddus ahli, Men ayrimlaringizni omon qoldiraman,
o‘shalarga yaxshiroq taqdir ato qilaman. Qolganlaringizning ustingizga esa dushman
tortib kelaman, boshingizga kulfatu og‘ir kunlar solaman. 12 Ey Yahudo xalqi, siz bronza
va temirni sindira olmaganingiz kabi, shimoldan* sizga hujum qiladigan dushmanlarni
ham sindira olmaysizlar. 13 Sizlar yurtingizning hamma joyida ko‘p gunohlar
qildingizlar. Shuning uchun boyliklaringiz va xazinalaringiz dushmanlarga tekin o‘lja
bo‘ladi. 14 O‘zingiz bilmagan yurtda dushmanlaringizga xizmat qilasizlar. Mening
g‘azabim sizlarni olovday yamlamay yutadi.”

15 Ey Egam, Sen hammasini bilasan,
Yodga ol meni, yordam bergin,
Meni quvg‘in qilganlardan o‘ch olgin.
G‘animlarimga sabr–toqat qilib,
Tag‘in meni halok qilib yuborma.
Seni deb xo‘rlanganimni esingdan chiqarma.
16 Aytgan har bir so‘zingga tashna edim.
So‘zlaringdan shodlanar edim,
So‘zlaring dilimga quvonch bag‘ishlar edi.
Zero, men Senga tegishliman,
Ey Parvardigori Olam — Egamiz.
17 Men xushchaqchaq ulfatlar davrasida o‘tirmadim,
Ularning xursandchiligiga sherik bo‘lmadim.
Qo‘ling ostida yolg‘iz o‘zim o‘tirar edim,
Sen meni g‘azabga to‘ldirgan eding.
18 Nega mening dardim zo‘rayyapti?
Nega og‘ir yaram tuzalmayapti?
Nahotki yozda qurigan buloq kabi,
Umidlarimni barbod qilsang?!

19 Egamiz menga shunday dedi:

“Agar tavba qilsang, seni yana xizmatimga olaman.
Bo‘lmag‘ur gaplar o‘rniga to‘g‘ri so‘zlar gapirsang,
Seni O‘zimning so‘zlovchim qilaman.
Shunda sen xalqning oldiga bormaysan,
Ular sening oldingga kelishadi.
20-21 Men seni bu xalq qarshisida
Mustahkam bronza devorday qilaman.
Ular senga hujum qilishadi,
Lekin seni yenga olishmaydi.
O‘zim sen bilan birga bo‘laman,
Seni xalos qilib, qutqaraman,
Ha, fosiqlar qo‘lidan xalos qilaman,

Zolimlar changalidan ozod etaman.”
Egamizning kalomi shudir.

16–BOB

Yeremiyoning hayoti uchun Egamizning rejasi

1 Egamizning quyidagi so‘zi menga ayon bo‘ldi: 2 “Oila qurma, bu yurtda o‘g‘il–
qizlaring bo‘lmasin. 3 Bu yurtda tug‘ilgan o‘g‘il–qizlar haqida va ularni dunyoga keltirgan
ota–onalar haqida Men, Egang, aytamanki, 4 ular og‘ir xastaliklardan halok bo‘lishadi.
Ular uchun hech kim aza tutmaydi, jasadlarini ko‘madigan biron kimsa bo‘lmaydi,
jasadlari go‘ng kabi, yer ustida yotaveradi. Ular qilichdan va qahatchilikdan halok
bo‘lishadi, jasadlari qushlar va yovvoyi hayvonlarga yem bo‘ladi.
5 Men senga aytaman: azador uyga kirma, motam tutma, ta’ziya bildirma. Men bu
xalqni tinchlik–xotirjamligimdan mahrum qildim. Men bu xalqni sevmayman, ularga
mehr–shafqat ko‘rsatmayman, — deb aytmoqda Egamiz. 6 — Bu yurtning kattayu
kichigi o‘lib ketadi, ularni hech kim ko‘mmaydi. Hech kim ular uchun aza tutmaydi,
qayg‘udan badanini tilmaydi, sochini oldirmaydi*. 7 Azadorlarga tasalli berish uchun
hech kim ovqat olib chiqmaydi. Ota yoki onasidan judo bo‘lganlarga tasalli berish uchun
hech kim bir kosa sharob uzatmaydi.
8 Ziyofat bo‘layotgan uyga kirma, ular bilan o‘tirib, yeb–ichma. 9 Chunki sening
zamoningda shodu xurramlik sadolariga, kelin–kuyovning xursandchilik ovozlariga
chek qo‘yaman, — deb aytmoqda Isroil xalqining Xudosi — Sarvari Olam. — Buni o‘z
ko‘zing bilan ko‘rasan.
10 Aytganlarimning hammasini odamlarga gapirib berganingda, ular sendan shunday
deb so‘raydilar: «Nega Egamiz bizga bunday kulfatlarni ravo ko‘ryapti? Aybimiz nima?
Egamiz Xudoga qarshi nima gunoh qildik?» 11 Sen ularga shunday javob ber: «Egamiz
aytmoqda: ota–bobolaringiz Meni tark etdilar. Qonunlarimga rioya qilmasdan, Mendan
yuz o‘girdilar. Boshqa xudolarga ergashdilar, ularga xizmat qilib, sajda etdilar.
12 Sizlarning gunohlaringiz esa ota–bobolaringiznikidan ham oshib tushdi. Mana, har
biringiz yovuz yuragingizning o‘jarliklariga itoat qilyapsiz, Menga quloq solmayapsiz.
13 Shuning uchun Men sizlarni bu yerdan boshqa bir yurtga uloqtirib yuboraman. U
yurtni o‘zingiz ham, ota–bobolaringiz ham bilmaydilar. U yerda sizlar kechayu kunduz
boshqa xudolarga xizmat qilasizlar. Endi Men sizlarga rahm qilmayman.»”

Xalq surgundan qaytadi

14 Egamiz demoqda: “Shunday kunlar keladiki, odamlar ont ichganda: «Isroil xalqini
Misrdan olib chiqqan Egamiz shohid», deb aytmaydigan bo‘ladi. 15 Buning o‘rniga ular:
«Isroil xalqini shimoldagi yurtdan* va O‘zi surgun qilgan barcha boshqa yurtlardan olib
chiqqan Egamiz shohid», deb ont ichadigan bo‘lishadi. Men xalqimni O‘zim ota–
bobolariga bergan yurtga qaytarib olib kelaman.”

Yaqinlashib kelayotgan jazo

16 Egamiz shunday demoqda: “Mana, Men talay dushmanni yuboryapman. Ular
xalqimni baliqchilar kabi, tutib oladilar. O‘sha dushmanlar ketidan boshqalarini
jo‘nataman, ular ovchilar kabi, xalqimni har bir tog‘da, har bir tepalikda, qoyalarning
jarliklarida ovlaydilar. 17 Men xalqimning tutgan hamma yo‘llarini ko‘rib turibman.

Ularning yovuz yo‘llari Mendan yashirin emas. Hamma gunohlari ko‘z o‘ngimda.
18 Qilgan gunohlari va qilmishlari uchun xalqimga ikki barobar qilib qaytaraman. Zotan,
ular jonsiz, jirkanch xudolari bilan yurtimni harom qildilar, Mening mulkimni makruh
butlarga to‘ldirdilar.”

Yeremiyoning ibodati

19 Ey Egam, mening qudratim, qo‘rg‘onimsan,
Kulfat kunida panohimsan.
Dunyoning to‘rt burchagidan xalqlar
Sening oldingga kelib, aytadi:
“Ajdodlarimizning soxta butlaridan bo‘lak hech narsasi yo‘q edi,
Bu betayin butlaridan foyda bo‘lmagan edi.
20 Inson o‘zi uchun xudolarni yasay oladimi?!
Bunday xudolar haqiqiy Xudo emas–ku!”

21 Egamiz shunday deydi:
“Shunday ekan, ularga saboq beray,
Kuch–qudratimni ularga ko‘rsatib qo‘yay.
Shunda Egangiz Men ekanligimni bilib olishadi.”

17–BOB

Yahudo xalqining gunohi va jazosi

1 Egamiz shunday deydi: “Ey Yahudo xalqi, sizlarning gunohingiz temir qalam bilan
o‘yib yozilgan. Sizlarning gunohingiz tosh yuraklaringiz ustiga va qurbongohlaringiz
shoxlariga olmos uchi bilan o‘yib bitilgan*. 2 Hatto farzandlaringiz ham baland qirlardagi
va sersoya daraxtlar ostidagi qurbongohlarga borib, Asheraning* ustunlariga sajda
qilishadi. 3 Butun yurtda qilgan gunohlaringiz evaziga Men O‘z tog‘imni*, sizning hamma
boyliklaringizni, xazinalaringizni va barcha sajdagohlaringizni* dushmanga o‘lja qilib
beraman. 4 Sizlarga Men mulk qilib bergan yurtdan o‘z aybingiz tufayli ayrilasizlar. Men
sizlarni o‘zingiz bilmagan bir yurtga jo‘nataman, dushmanlaringizga hammangizni qul
qilib beraman. Sizlar Meni g‘azablantirdingiz, g‘azabim so‘nmas olov kabi yonmoqda.”

Hikmatli so‘zlar

5 Egamiz shunday demoqda:
“Umidini insonga bog‘lagan,
Foniy bandaning kuchiga ishongan,
Yuragi Mendan uzoqlashgan odam la’natidir.
6 Bunday odam sahrodagi butaday bo‘ladi,
Farovon hayot ko‘rmaydi.
Cho‘lning qaqroq joylarida,
Sho‘r bosgan bo‘m–bo‘sh yerlarda yashaydi.

7 Egasidan umid qilgan kishi baxtlidir,
Yolg‘iz Xudoga inongan zot saodatlidir!
8 Bunday kishi suv bo‘yiga o‘tqazilgan daraxtga o‘xshaydi,
Oqar suvlar tomon ildiz otadi.

Kunning jaziramasidan qo‘rqmaydi,
Barglari doim yam–yashil bo‘ladi.
Qurg‘oqchilik kelganda ham bezovta bo‘lmaydi,
Meva berishdan to‘xtamaydi.

9 Odamning yuragi shunchalik ayyorki,
Uning davosi yo‘q!
Uning ichidagini kim biladi?!
10 Ammo Men, Egangiz, odamning yuragini bilaman,
Uning o‘y–fikrlarini tekshiraman.
Qilmishiga yarasha jazolayman,
Qilgan ishiga yarasha taqdirlayman.”

11 Nohaqlik bilan boylik orttirgan kishi,
O‘zi qo‘ymagan tuxumlarni bosib yotgan kaklikka o‘xshaydi.
Bunday kishi umrining yarmida
Boyliklaridan mahrum bo‘ladi,
Hayoti oxirlab qolganda ahmoq ekanini biladi.

12 Muqaddas makonimiz
Azaldan yuksaltirilgan ulug‘vor taxtdir!
13 Ey Egamiz, Sen Isroilning yolg‘iz umidisan!
Seni tark etganlarning hammasi sharmanda bo‘lar,
Sendan yuz o‘girganlarning ismlari tuproqqa yozilar.
Ey Egamiz, ular Seni tark etdilar.
Ha, hayotbaxsh suv bulog‘idan voz kechdilar.

Yeremiyo Egamizdan madad so‘raydi

14 Ey Egam, menga shifo ber, sog‘ayib ketay.
Meni qutqargin, najot topay.
Axir, yolg‘iz Seni olqishlayman.
15 Qara, bu odamlar ustimdan kulishyapti,
“Egamizning tahdidli so‘zlari qani?!
Aytganlari bajo bo‘lsin–chi endi!” deb aytishyapti.
16 Men esa xalqingga cho‘pon bo‘ldim,
Xizmat qilishdan bosh tortmadim.
Ofat kuni kelishini xohlamaganimni bilasan.
Og‘zimdan chiqqan har bir so‘z Senga ayondir.
17 Meni vahimaga solmagin,
Kulfat kunida panohim Sensan.
18 Meni quvg‘in qilganlar sharmanda bo‘lsin,
Meni esa sharmanda qilma.
Dushmanlarim sarosimaga tushsin,
Meni esa dovdiratib qo‘yma.
Ularning boshlariga kulfat keltir,
Jazosini ikki barobar og‘irroq qilgin.

Shabbat kuniga rioya qilish haqida

19 Egamiz menga shunday dedi: “Yahudo shohlari kirib chiqadigan Xalq darvozasi
oldiga borib tur, so‘ng Quddusning boshqa darvozalari oldiga ham bor. 20 Borganingda
xalqqa shunday deb ayt: «Ey Yahudo shohlari, ey Yahudo xalqi, bu darvozadan o‘tib
yurgan butun Quddus aholisi, Egamizning so‘zini eshitinglar! 21 Egamiz shunday deb
aytmoqda: Shabbat kuni yuk tashimanglar, Quddus darvozalaridan yukni ko‘tarib
kirmanglar. Hushyor bo‘linglar, tag‘in hayotingizga o‘zingiz zomin bo‘lib qolmanglar.
22 Shabbat kuni uyingizdan biron yukni ko‘tarib chiqmanglar, hech qanday ish
qilmanglar. Men ota–bobolaringizga amr qilganimdek, Shabbat kunini muqaddas deb
bilinglar. 23 Ota–bobolaringiz gaplarimga e’tibor bermagan, Menga quloq solmagan
edilar. Ular qaysarlik qilib, so‘zlarimni tinglamagandilar, gapimga kirmagandilar.
24 Bordi–yu, sizlar gaplarimga quloq solsangizlar, Shabbat kuni shahar darvozalaridan
yuk tashimasangizlar, o‘sha muborak kunni muqaddas deb bilib, hech qanday ish
qilmasangizlar, 25 Quddus taxtida doim Dovud naslidan bo‘lgan shoh o‘tiradi. Jang
aravalariyu otlarni minib olgan shohlar va a’yonlar shahar darvozalaridan kirishadi.
Yahudo xalqi va Quddus aholisi ular bilan birga kiradilar. Quddusdan to abad odam
arimaydi. 26 Shunda Yahudo shaharlaridan, Quddus atrofidagi qishloqlardan, Benyamin
hududidan, qirlardan, g‘arbdagi qir etaklaridan, Nagav cho‘lidan odamlar keladi. Ular
Egasining uyiga kuydiriladigan va boshqa qurbonliklarni, shukrona va don nazrlarini,
xushbo‘y tutatqilarni olib keladilar. 27 Bordi–yu, sizlar gapimga quloq solmasangizlar,
Shabbat kunini muqaddas deb bilmay, yuk tashib, darvozalardan kirib chiqsangizlar,
Men shahar darvozalarini yondirib yuboraman. Olov Quddus saroylarini yo‘q qiladi, bu
olovni hech kim o‘chira olmaydi.»”

18–BOB

Yeremiyo kulolning uyida

1 Egamiz Yeremiyoga shu so‘zini ayon qildi: 2 “Qani bo‘l, kulolning uyiga bor. O‘sha
yerda senga bir gap aytaman.” 3 Men kulolning uyiga bordim. Kulol charx urib,
ishlayotgan edi. 4 U loydan yasayotgan idish buzildi, shundan keyin u o‘zi xohlagan
shakldagi boshqa bir idishni yasadi.

5 Egamiz O‘z so‘zini menga ayon qilib dedi: 6 “Ey Isroil xalqi, nahotki bu kulol qilgan
ishni Men sizlarga qila olmasam?! Sizlar Mening qo‘limda kulol qo‘lidagi loyga
o‘xshaysizlar. 7 Men biron xalqni yoki shohlikni qo‘porib tashlashimni, yo‘q qilib vayron
qilishimni e’lon etishim mumkin. 8 Ammo o‘sha xalq yovuz qilmishlaridan qaytsa, Men
ham ularning boshlariga falokat keltirish niyatimdan qaytaman. 9 Shunday paytlar ham
bo‘ladiki, Men biron xalq yoki shohlikka: «Sizlarni qayta bunyod etib, mustahkam
qilaman», deb aytaman. 10 Ammo o‘sha xalq Mening oldimda qabihlik qilsa yoki
aytganlarimga quloq solmasa, Men niyatimdan qaytaman, ularga qilmoqchi bo‘lgan
yaxshiligimni qilmayman.

11 Shunday ekan, Yahudo xalqi bilan Quddus aholisiga ayt: «Egamiz shunday
demoqda: mana, Men boshingizga soladigan kulfatni tayyorlayapman, sizlarga qarshi
rejalar tuzyapman. Bo‘ldi endi, har biringiz yomon yo‘lingizdan qaytinglar. Turmush
tarzingizni o‘zgartiringlar. Eski qilmishlaringizdan voz kechinglar.»

12 Ammo ular: «Gapirganing befoyda!» deyishadi. «Biz baribir xohlaganimizday

yashaymiz, yovuz yuraklarimizning o‘jarliklariga itoat qilaveramiz», deb aytishadi.”

Xalq Egamizni rad etadi

13 Shuning uchun Egamiz demoqda:
“Xalqlardan so‘rab–surishtiring–chi,
Bunaqasini hech eshitganmikan?!
Bokira qiz Isroil jirkanch bir ish qildi.
14 Lubnondagi qorlar hech eriganmi?!
Azim cho‘qqilarni hech tark etganmi?!
Uning muzdek suvlari hech ado bo‘lganmi?!
15 Mening xalqim esa Meni tark etdi,
Ular behuda butlarga tutatqi tutatdilar.
Butlari tufayli xalqim qoqildi,
Azaliy yo‘lidan adashdi.
To‘g‘ri yo‘lni tark etib, so‘qmoqlardan yurib ketdi.
16 Shu sababdan yurti huvullab qoladi,
Yurtning ahvolidan odamlar qotib qoladi,
O‘tgan–ketganlar dahshatga tushadi,
«Yo tavba» deb, yoqasini ushlashadi.
17 Sharqdan esgan shamol kabi,
Men ularni dushmanlari oldida sochib tashlayman.
Boshlariga kulfat tushgan kuni
Ularga orqa o‘giraman,
Ularga nazar solmayman.”

Yeremiyoga qarshi fitna

18 So‘ng odamlar shunday dedilar: “Qani, Yeremiyoga qarshi fitna uyushtiraylik. Axir, qonunni o‘rgatadigan ruhoniylar, maslahat beradigan donishmandlar va Xudoning so‘zini aytadigan payg‘ambarlar har doim bor. Yeremiyoga tuhmat qilaylik, uning gaplariga umuman e’tibor bermaydigan bo‘laylik.”

19 Ey Egam, meni tingla,
Raqiblarim gaplarini eshit!
20 Nahotki yaxshilikka yomonlik qaytarishsa?!
Esingdami, huzuringda turib,
Ular uchun Senga yolvorgandim,
Ulardan Sening qahringni qaytargandim.
Ular esa menga chuqur qazidilar.
21 Shunday ekan, bolalarini ochlikdan o‘ldir,
Hammasini qilich izmiga topshir.
Xotinlari bolalaridan judo bo‘lsin,
Hammasi beva bo‘lib qolsin.
Erkaklari o‘latdan qirilib ketsin,
Yigitlari jangda halok bo‘lsin.
22 To‘satdan ustiga bosqinchi yuborganingda,
Uylaridan dod–faryodlar ko‘tarilsin!

Axir, ular meni tutib olmoqchi bo‘lib, chuqur qazidilar,
Oyog‘imni sirtmoqqa ilintirmoqchi bo‘ldilar.
23 Meni o‘ldirish uchun fitna qildilar,
Buni Sen bilasan, ey Egam.
Ularning gunohlarini kechirma,
Jinoyatlaridan o‘tma.
G‘azablanib, jazolarini bergin,
Ular Sening oldingda yiqilib qolsinlar.

19–BOB

Singan ko‘za

1 Egamiz menga shunday dedi: “Borib kuloldan bir sopol ko‘za sotib ol. So‘ng
yoningga xalq oqsoqollaridan va bosh ruhoniylardan olib, 2 Singan ko‘zalar darvozasi
yaqinidagi Xinnum soyligiga* tush. Men senga aytadigan so‘zlarni oqsoqollarga sen
o‘sha yerda aytasan. 3 Sen ularga shunday deb ayt: «Ey Yahudo shohlari, Quddus aholisi,
Egamizning so‘zlarini eshitinglar. Isroil xalqining Xudosi — Sarvari Olam shunday
demoqda: Men bu joyga shunday falokat yog‘diramanki, bu falokatni eshitganlarning
boshidan hushi uchadi. 4 Zotan, xalqim Meni tark etdi, bu yerni harom qildi. Ular o‘zlari
bilmagan, ota–bobolari ham, Yahudo shohlari ham bilmagan begona xudolarga
qurbonliklar kuydirdilar. Bu yerni begunoh odamlarning qoniga to‘ldirdilar. 5 Baalga
atab sajdagohlar* qurdilar. U yerda o‘z o‘g‘il–qizlarini Baalga qurbonlik qilib kuydirdilar.
Men ularga buni amr qilmaganman, bunaqasini xayolimga ham keltirmaganman. 6 Qarab
turinglar! — deb aytmoqda Egamiz. — Shunday kunlar keladiki, odamlar bu joyni Tofat
yoki Xinnum soyligi deb atamaydi, balki bu joy ‘Qirg‘in vodiysi’ deb ataladigan bo‘ladi.
7 Mana shu joyda Men Yahudo va Quddusning rejalarini barbod qilaman*. Xalqimni
dushmanlarga mag‘lub qilib beraman, ularda qasdi borlarning qo‘liga topshiraman.
Jasadlarini qushlarga, yovvoyi hayvonlarga yem qilaman. 8 Men bu shaharni shunday
vayron qilamanki, uning oldidan o‘tgan–ketgan har bir kishi shaharning ayanchli
ahvolidan dahshatga tushib, qotib qoladi. 9 Dushmanlar shaharni qamal qilib, odamlarni
qirib tashlamoqchi bo‘ladilar. Qamal paytida azobda qolgan xalq o‘g‘il–qizlarining va
bir–birining etini yeydigan bo‘ladi.»
10 Ey Yeremiyo, o‘zing bilan kelganlarning oldida ko‘zani sindir. 11 Ularga shunday
deb ayt: «Sarvari Olam shunday demoqda: mana bu ko‘za chilparchin bo‘lib, tuzatib
bo‘lmaydigan ahvolga tushgani kabi, Men bu xalqni va bu shaharni chilparchin qilaman.
O‘liklar Tofatda dafn qilinadi, o‘liklar ko‘pligidan qabrlarga joy yetmay qoladi. 12 Men bu
shaharni va uning aholisini shunday ahvolga solamanki, bu shahar Tofatga o‘xshagan
bo‘lib qoladi, — deb aytmoqda Egamiz. 13 — Quddusdagi xonadonlar va Yahudo
shohlarining saroylari, Tofat kabi, harom bo‘ladi. Chunki u yerlardagi hamma uylarning
tomlarida samoviy jismlarga atab qurbonliklar kuydirilgan, begona xudolarga sharob
nazrlari keltirilgan.»”
14 Yeremiyo Egamizning amri bilan Tofatda bashorat qildi, so‘ng u yerdan qaytib
kelgach, Egamizning uyi hovlisida turib xalqqa dedi: 15 “Isroil xalqining Xudosi —
Sarvari Olam shunday demoqda: endi Men aytgan so‘zimga binoan bu shahar va uning
atrofidagi qishloqlarga falokat keltiraman, chunki sizlar o‘jarlik qilib, so‘zlarimni

eshitishni xohlamadingizlar.”

20–BOB

Yeremiyo ruhoniy Pashxur bilan bahslashadi

1 Immar o‘g‘li Pashxur ruhoniy bo‘lib, Egamiz uyining bosh nazoratchisi edi. U
Yeremiyoning bashorat qilib aytgan bu so‘zlarini eshitdi. 2 Shu sababdan Yeremiyoni
kaltaklatib, Egamiz uyining hovlisidagi Yuqori Benyamin darvozasi* tomonda kishanlab
qo‘yishni buyurdi. 3 Ertasi kuni ertalab Pashxur Yeremiyoning kishanlarini yechganda,
Yeremiyo unga shunday dedi: “Egamiz senga «Pashxur» emas, «Dahshat qamragan»*
deb ism qo‘ygan. 4 Zero, Egamiz shunday deb aytmoqda: Men seni va hamma
do‘stlaringni vahimaga solaman. Do‘stlaring dushmanlari qo‘lida halok bo‘layotganini
o‘z ko‘zing bilan ko‘rasan. Men butun Yahudo xalqini Bobil shohining qo‘liga
topshiraman. Bobil shohi xalqimni asir qilib, o‘zining yurtiga olib ketadi. Ularni
qilichdan o‘tkazadi. 5 Men bu shaharning boyliklarini, bor narsasini, qimmatbaho
buyumlarini, Yahudo shohlarining xazinalarini dushmanning qo‘liga beraman. Ular
shaharni talon–taroj qilishadi. Barcha boyliklarini Bobilga olib ketishadi. 6 Sen ham, ey
Pashxur, o‘z xonadoning bilan Bobilga surgun bo‘lasan. Sen u yerda jon berib, dafn
qilinasan. Yolg‘on bashoratlaringga quloq solgan do‘stlaring ham o‘sha ko‘yga tushadi.”

Yeremiyo Egamizga shikoyat qiladi

7 Ey Egam, Sen meni ko‘ndirding,
Men ham ko‘ndim.
Mendan ustun kelding, meni yengding.
Men hammaga mazax bo‘ldim,
Hamma ustimdan kulmoqda.
8 Gapirganimda jar solishim kerak,
“Zo‘ravonlik! Halokat!” deya baqirishim kerak.
Sening so‘zing tufayli hammaga kulgi bo‘ldim,
Kun bo‘yi meni masxara qilishyapti.
9 Bordi–yu, men: “Bo‘ldi, Egam haqida so‘zlamayman,
Uning nomidan gapirmayman” desam,
Sening so‘zing, olov kabi, ichimni yondiradi,
O‘t qo‘yganday suyaklarimni zirqiratadi.
So‘zingni ichimda saqlab turishdan charchadim,
Ha, uni boshqa ushlab tura olmayman.
10 Eshityapman, ko‘pchilik g‘iybat qilyapti.
Atrofimni dahshat qamragan!
“Fosh bo‘lsin! Uni fosh qilaylik!” deb aytyaptilar.
Hatto mening yaqin do‘stlarim ham
Qoqinishimni poylab turibdilar,
“Yeremiyo tuzoqqa tushadi,
Shunda uni yengamiz,
Undan qasdimizni olamiz”, deyaptilar.
11 Ammo Sen, ey Egam, men bilan birgasan,
Sen bahodir jangchiga o‘xshaysan.

Meni quvg‘in qilganlar qoqilib tushadi,
Ular mendan ustun kelolmaydi.
Isnodga qoladi, muvaffaqiyatga erisholmaydi.
Ular to abad dog‘da qoladi,
Sharmandagarchiligi hech qachon unutilmaydi.
12 Ey Sarvari Olam, Sen solih kishini sinaysan,
Odamning dilini, o‘y–xayolini bilasan.
Dushmanlarimdan o‘ch olganingni ko‘rayin,
Axir, da’voimni Senga topshirdim!

13 Egamizga qo‘shiq kuylanglar!
Egamizga hamdu sanolar aytinglar!
Zero, U bechora bandaning jonini
Badkirdorlar qo‘lidan qutqardi.

14 Evoh, men tug‘ilgan kun qurib ketsin!
Onam meni tuqqan kun xosiyatsiz bo‘lsin!
15 Otamga xabar olib kelgan odam la’nati bo‘lsin,
“O‘g‘il ko‘rding!” deya uni xursand qilgan kishi qurib ketsin.
16 Egamiz shafqatsizlarcha vayron qilgan
Shaharlarday* bo‘lsin o‘sha odam.
U ertalabdanoq dodu faryodlar eshitsin,
Kunduz kuni urush na’ralarini eshitsin.
17 Axir, u meni onamning qornidayoq o‘ldirmadi.
Shunda onamning qorni qabrim bo‘lgan bo‘lardi,
Onam to abad homilador bo‘lib qolgan bo‘lardi.
18 Nimaga ham tug‘ildim ekan–a?!
Mashaqqatu qiyinchilik ko‘rish uchunmi?!
Umrimni sharmandalikda xazon qilish uchunmi?!

21–BOB

Quddusning mag‘lubiyati haqida bashorat

1 Shoh Zidqiyo* Yeremiyo payg‘ambarning oldiga Malkiyo o‘g‘li Peshxur va Masiyo o‘g‘li ruhoniy Zafaniyoni yubordi. Shunda Egamiz O‘z so‘zini Yeremiyoga ayon qildi. Peshxur bilan Zafaniyo Yeremiyoga shunday dedilar: 2 “O‘tinamiz, biz uchun Egamizga yolvor, chunki Bobil shohi Navuxadnazar* bizga hujum qilyapti. Balki Egamiz avvalgidek mo‘jizalar ko‘rsatib, Navuxadnazarni orqaga chekintirar.”

3 Yeremiyo ularga shunday javob berdi: 4 “Borib, Zidqiyoga Isroil xalqining Xudosi — Egamizning shu so‘zlarini aytinglar: «Sizlar qo‘lingizga qurol olib, sizlarni qamal qilgan Bobil shohiga va Bobilliklarga* qarshi jang qilyapsizlar. Ammo qo‘lingizdagi qurollaringizni Men Bobilliklarga emas, balki o‘zlaringizga qarshi ishlataman. Mana shu shahar — Quddus markazida qurollaringizni uyib tashlayman. 5 Men O‘zim sizlarga qarshi chiqaman. O‘z qudratu ajoyibotlarim bilan, qahru g‘azabim bilan sizlarga qarshi jang qilaman. 6 Bu shahar aholisini yo‘q qilaman. Odamlaru hayvonlar o‘latdan nobud

bo‘ladilar. 7 Shundan keyin Men Yahudo shohi Zidqiyoni, uning a’yonlarini, shaharda urushdan, qahatchilikdan va o‘latdan omon qolgan hamma odamlarni Bobil shohi Navuxadnazarning qo‘liga beraman, — deb aytmoqda Egamiz. — Ularda qasdi borlarga topshiraman, dushman qo‘liga beraman. Dushmanlar shahar aholisini shafqatsizlarcha qirib tashlaydilar. Bironta odamni ham ayamaydilar, ularga achinmaydilar, rahm qilmaydilar.»

8 Sizlar bu xalqqa borib aytinglar: «Egamiz demoqda: Men sizlarga ikki yo‘lni — hayot va o‘lim yo‘lini berdim. 9 Shaharda qolganlar qilich, qahatchilik va o‘latdan nobud bo‘ladilar. Shahardan chiqib, Bobilliklarga taslim bo‘lganlar esa tirik qoladilar. Bu odamlar hech bo‘lmasa o‘z jonlarini saqlab qoladilar. 10 Men bu shaharga yaxshilik emas, kulfat keltirishga qaror qildim, — deb aytmoqda Egamiz. — Bu shaharni Bobil shohiga taslim qilib beraman. Navuxadnazar shaharga o‘t qo‘yadi.»

Yahudo shohining xonadoni jazolanadi

11 Yahudo shohining xonadoniga ham borib shunday aytinglar: «Egamizning so‘zini eshit, 12 ey Dovud sulolasi! Egamiz shunday demoqda:

Har kuni ertalabdan adolat qilinglar,
Jabrdiydalarni zo‘ravonlar qo‘lidan qutqaringlar.
Aks holda, qilgan yovuzliklaringiz tufayli
Mening g‘azabim alanga oladi,
Bu g‘azabimni so‘ndirishga hech kimning qurbi yetmaydi.

13 Ey vodiydagi qoya ustida qurilgan Quddus,
Men senga qarshiman!
— deb aytmoqda Egamiz. —
Sizlar aytasiz: ‘Kim ham bizga qarshi chiqa olardi?!
Kim ham qo‘rg‘onlarimizga kira olardi?!’
14 Men qilmishingizga yarasha jazoingizni beraman,
— deb aytmoqda Egamiz. —
Shohning saroyiga* o‘t qo‘yaman,
Olov atrofdagi hamma narsani yondiradi.»”

22–BOB

Yahudo shohining xonadoni haqida bashorat

1 Egamiz menga shunday dedi: “Yahudo shohi saroyiga borib, u yerda ushbu so‘zlarni jar solib ayt: 2 «Ey Dovud taxtida o‘tirgan Yahudo shohi, eshit. A’yonlaring va mana bu saroyga kirgan odamlaring ham sen bilan birga Egamizning so‘zini eshitsin.» 3 Keyin ularga ayt, Egamiz shunday demoqda: «Adolat va to‘g‘rilik bilan ish tuting. Jabrdiydalarni zo‘ravonlarning qo‘lidan qutqaring. Musofirlarga, yetim va bevalarga nohaqlik qilmang, ularni ezmang. Bu yerda begunoh odamning qonini to‘kmang. 4 Bordi–yu, sizlar haqiqatan ham bularga rioya qilsangizlar, Quddus taxtida doim Dovud naslidan bo‘lgan shoh o‘tiradi. Jang aravalariyu otlar mingan shohlar saroy darvozalaridan kirishadi. A’yonlar va xalq ham ular bilan birga kiradi. 5 Bordi–yu, bu amrlarimga rioya qilmasangizlar, Men O‘z nomim haqi ont ichib* aytamanki, bu saroy

vayron bo‘ladi.» Egamizning kalomi shudir. 6 Axir, Egamiz Yahudo shohining saroyi haqida shunday demoqda:

«Sen Men uchun go‘zal Gilad o‘lkasiga* o‘xshaysan,
Bamisoli Lubnonning yuksak cho‘qqilarisan.
Lekin qasam ichib aytamanki, sen sahroga o‘xshab qolasan,
Huvullagan bir shaharga aylanib qolasan.
7 Senga qarshi bosqinchilarni jo‘nataman,
Qurollangan odamlarni yuboraman.
Ular sara sadrlaringni kesadilar,
Yog‘ochlaringni olovga tashlaydilar.»

8 Ko‘plab xalqlar bu shahar oldidan o‘tayotib, bir–birlaridan: «Nega Egamiz bunday buyuk shaharni shu ko‘yga solgan ekan–a?» deb so‘raydilar. 9 Ularga shunday javob berishadi: «Shahar aholisi o‘zlarining Egasi Xudo bilan tuzgan ahdini buzdi. Boshqa xudolarga sajda qilib, xizmat qiladigan bo‘ldi.»”

Yeremiyo shoh Yohuxoz haqida bashorat qiladi

10 O‘lgan shohingiz* uchun yig‘lamang,
U uchun aza tutmang.
Undan ko‘ra, surgun bo‘lgan shahzodangiz* uchun qayg‘uring,
U uchun achchiq–achchiq ko‘z yosh to‘king.
Axir, u endi qaytib kelmaydi,
Ona yurtini boshqa ko‘rmaydi.

11 Shoh Yo‘shiyodan keyin Yahudo taxtiga Yo‘shiyoning o‘g‘li Yohuxoz* o‘tirgan edi. Shoh Yohuxoz surgun qilingandan keyin, Egamiz u haqda shunday dedi: “U bu yerga hech qachon qaytib kelmaydi. 12 Surgun qilingan yerda olamdan o‘tadi, bu yurtni boshqa ko‘rmaydi.”

Yeremiyo Yohayiqim haqida bashorat qiladi

13 Egamiz shunday deydi:
“Uyini nohaqlik bilan qurganning* holiga voy!
Yuqori xonalarini adolatsizlik bilan bino qilganning holiga voy!
Bunday odam birodarini tekinga ishlatadi,
Uning mehnat haqini bermaydi.
14 U shunday deydi:
«Mana, o‘zim uchun katta saroy qurdim,
Yuqori qavatdagi xonalarni keng qildirdim.»
U uyiga katta oynalar qo‘ydirmoqda,
Devorlarini sadr yog‘ochi bilan qoplamoqda,
Ularni qirmizi rangga bo‘yamoqda.

15 Sen o‘zing uchun ko‘p sadr yog‘ochini yig‘ding,
Bu bilan sen yaxshi shoh bo‘lib qolmading!
Sening otang ham xohlaganicha yeb–ichgan,
Ammo doim haqiqatu adolatni o‘rnatgan.

Shu sababdan uning ishi yurishgan.
16 U faqiru bechorani himoya qilgan,
Shuning uchun farovon hayot kechirgan.
Xudoni bilish degani shu emasmi?!
— deb aytmoqda Egamiz. —
17 Sen esa faqat nohaq foydani koʻzlaysan.
Begunoh odamning qonini toʻkasan,
Zoʻravonlik va zulm oʻtkazasan.”

18 Shu sababdan Yahudo shohi Yoʻshiyo oʻgʻli Yohayiqim haqida Egamiz shunday demoqda:

“Unga hech kim aza tutmaydi,
«Voy, jigarim! Voy, jigarim!» deb yigʻlamaydi.
«Xoʻjayinim! Olampanohim!» deb hech kim qaygʻurmaydi.
19 Uni oʻlgan eshakning ahvoliga soladilar,
Quddus darvozalaridan sudrab chiqib, otib yuboradilar.”

Quddusning qismati

20 Egamiz shunday deydi:
“Ey Quddus, Lubnonga chiqib faryod qilgin,
Bashan oʻlkasiga borib, xitob etgin.
Aborim togʻlarida* turib, ovozing boricha baqirgin,
Chunki hamma oʻynashlaring* yoʻq boʻldi.
21 Farogʻatda yashaganingda, senga gapirdim,
Sen esa «Gapingga quloq solmayman!» deb aytding.
Ha, yoshligingdan shu yoʻlni tutgansan,
Gapimga sen kirmagansan.
22 Shamol hamma choʻponlaringni supurib ketadi,
Oʻynashlaring surgun boʻladi.
Sen esa qabih ishlaring tufayli uyatda qolasan,
Sharmandayi sharmisor boʻlasan.
23 Sen «Lubnon» saroyida* yashab yuribsan,
Sadr daraxtlari orasida in qurgansan,
Ammo tugʻayotgan ayol kabi dard chekasan,
Azobdan ingraysan.”

Shoh Yohayixinni Xudo hukm qiladi

24 Yohayiqim oʻgʻli Yohayixin* haqida Egamiz shunday demoqda: “Ey Yahudo shohi Yohayixin! Bordi–yu, sen Mening oʻng qoʻlimdagi muhr uzugim boʻlganingda edi, Men barhayot Xudo boʻlganim haqi ont ichib aytamanki, seni uloqtirib tashlagan boʻlar edim. 25 Sen kimdan qoʻrqsang, seni oʻshaning qoʻliga beraman, senda qasdi borlarning qoʻliga topshiraman. Seni shoh Navuxadnazarning* va Bobilliklarning* qoʻliga beraman. 26 Seni va seni tuqqan onangni* begona bir yurtga, kindik qoning toʻkilmagan bir yerga uloqtirib yuboraman. Sizlar oʻsha yerda oʻlasizlar. 27 Sizlar bu yurtga qaytib kelishni orzu qilasizlar, ammo qaytib kelmaysizlar.”

28 Yohayixin tashlab yuboriladigan siniq xumday bo‘lib qoladi,
Hech kimga kerak bo‘lmaydigan sopol idishga o‘xshab qoladi.
U bolalari bilan surgun bo‘ladi!
O‘zi bilmagan yurtga uloqtirib tashlanadi!
29 Ey yurt, yurt, yurt!
Egamizning so‘zini eshit!
30 Egamiz shunday demoqda:
“Bu odamning farzandlarini nasabnomaga kiritmang,
Uni hayotda omadi yo‘q, deb qayd qilib qo‘ying.
Uning zurriyotidan birortasi muvaffaqiyat qozonmas,
Birortasi Dovud taxtiga chiqa olmas.
Yahudoda ular hech qachon hukmronlik qilmaydilar.”

23–BOB

Kelajakka umid

1 Egamiz shunday demoqda: “Cho‘ponlar yaylovimdagi qo‘ylarni tarqatib yuboryaptilar, ularni yo‘q qilyaptilar. Bunday cho‘ponlarning holiga voy! 2 Ey xalqimni boqqan cho‘ponlar, sizlar qo‘ylarimni o‘z holiga tashlab qo‘ydingizlar. Ularni tarqatib, uzoqlarga qochirib yubordingizlar. Bu yovuz qilmishlaringiz uchun Men sizlarni o‘z holingizga qo‘ymay jazolayman, — deb aytmoqda Isroil xalqining Xudosi — Egamiz. 3 — Men qo‘ylarimni har xil yurtlarga haydab yuborgan edim. Endi O‘zim ularni yig‘ib olaman, o‘zlarining yayloviga olib kelaman. Ular barakali bo‘lib, ko‘payadilar. 4 Men ular ustidan boshqa cho‘ponlarni tayinlayman. Cho‘ponlar qo‘ylarimni boqadilar. Shunda qo‘ylarim hech narsadan qo‘rqmaydi, sarosimaga tushmaydi. Ularning birontasi ham yo‘qolmaydi.” Egamizning kalomi shudir.

5 Egamiz demoqda: “Shunday kunlar keladiki, Men Dovud naslidan solih bir novdani yetishtiraman. Bu Shoh donolik bilan hukmronlik qiladi. Adolat va to‘g‘rilik bilan ish tutadi. 6 Uning hukmronligi davrida Yahudo xalqi bexatar yashaydi, Isroil xalqi osoyishta hayot kechiradi. O‘sha Shohni «Egamiz — najotkorimiz» deb atashadi.”

7 Egamiz demoqda: “Shunday kunlar keladiki, odamlar ont ichganda: «Isroil xalqini Misrdan olib chiqqan Egamiz shohid», deb aytmaydigan bo‘ladi. 8 Buning o‘rniga ular: «Isroil naslini shimoldagi yurtdan* va surgun qilingan boshqa barcha yurtlardan olib chiqqan Egamiz shohid», deb ont ichadigan bo‘ladi. Ular o‘z yurtlarida yashashadi.”

Yeremiyo soxta payg‘ambarlar haqida bashorat qiladi

9 Payg‘ambarlar haqida o‘ylab,
Yurak–bag‘rim ezilib ketdi,
Vujudim titrab ketmoqda.
Egamiz tufayli,
Uning aytgan muqaddas so‘zi tufayli
Men mast odamga o‘xshab qoldim,
Sharobga bo‘kkan kishiday bo‘lib qoldim.
10 Evoh, yurt zinokorlarga to‘lib ketdi,
La’nat* tufayli yer qaqrab qoldi,
Dashtdagi yaylovlar qurib yotibdi.

Payg‘ambarlar qabihlik qilishga shoshiladi,
Kuchini haqsizlik yo‘lida ishlatishadi.

11 Egamiz shunday demoqda:
“Payg‘ambaru ruhoniylar betavfiqdirlar,
Hatto Mening uyimda ham qabihlik qilganlarini ko‘rdim.
12 Shu sababdan yurgan yo‘llari sirpanchiq bo‘ladi,
Ular zulmatga g‘arq bo‘lishadi.
Hammasi yiqilib qoladi.
Jazo oladigan yili
Boshlariga kulfat keltiraman,
— deb aytmoqda Egamiz. —
13 Samariya payg‘ambarlari orasida
Jirkanch bir ishni ko‘rdim:
Ular Baal nomidan bashorat qilishdi,
Xalqimni yo‘ldan ozdirishdi.
14 Ammo Quddus payg‘ambarlari orasida
Bundan ham battarrog‘ini ko‘rdim:
Ular zino qilib, yolg‘on ichida yashashadi,
Yovuzlarning ishini qo‘llab turishadi,
Shuning uchun hech kim yomon yo‘lidan qaytmayapti.
Nazarimda ularning hammasi Sado‘m odamlariday bo‘lib qolgan,
Quddus aholisi G‘amo‘ra* aholisiga o‘xshab qolgan.”

15 Sarvari Olam payg‘ambarlar haqida shunday demoqda:
“Men ularga achchiq o‘tdan yediraman,
Zaharli suvdan* ichiraman,
Zero, Quddus payg‘ambarlari dastidan
Yurtimda betavfiqlar ko‘payib ketdi.”

16 Sarvari Olam shunday demoqda: “Sizlarga bashorat qilayotgan payg‘ambarlarning gaplariga quloq solmanglar. Ular qo‘yningizni puch yong‘oqqa to‘ldiryapti. Ular Mening og‘zimdan chiqqan so‘zlarni emas, o‘z dil orzularini aytishyapti. 17 Mening so‘zimdan nafratlangan odamlarga ular hadeb: «Hammasi yaxshi bo‘ladi», deyishadi. Yuragidagi o‘jarliklarga itoat qilganlarga: «Boshingizga balo–qazo kelmaydi», deyishadi.”

18 Xo‘sh, Egamizning kengashida* ulardan qaysi biri qatnashibdi?!
Xudoning so‘zini qaysi biri eshitibdi?!
Qaysi biri e’tibor bilan Uni tinglabdi?!
19 Ana, bo‘ron ko‘tarildi!
Bu Egamizning g‘azabidir.
Uning g‘azabi quyun girdobi bo‘lib,
Fosiqlarning boshiga tushdi.
20 Egamiz ko‘nglidagi niyatini bajarmaguncha,
Uni oxiriga yetkazmaguncha,
G‘azabidan tushmaydi.

Keyinchalik buni anglab olasizlar.

21 Egamiz shunday dedi:
“Bu payg‘ambarlarni Men yubormadim,
Ular o‘zlari yugurib bordilar.
Ularga Men gapirmadim,
Ular esa bashorat qildilar.
22 Agar o‘sha payg‘ambarlar kengashimda bo‘lganlarida edi,
So‘zlarimni xalqimga yetkazgan bo‘lardilar.
Xalqimni yomon yo‘ldan,
Yovuz qilmishlardan qaytargan bo‘lardilar.”

23 Egamiz shunday demoqda: “Men hamma yoqdaman — yaqinda ham, uzoqda ham o‘sha Xudoman. 24 Kim Mendan yashirina oladi?! Yeru ko‘kni to‘ldirib turgan Men emasmi?! — deb aytmoqda Egamiz. 25 — Mening nomimdan yolg‘on bashorat qilgan payg‘ambarlarning: «Men bir tush ko‘rdim! Xudo menga bir tush berdi!» deganlarini eshitdim. 26 Qachongacha bu davom etadi?! Ular yuraklaridagi hiylayu nayranglarini, yolg‘on bashoratlarini bas qilishadimi, yo‘qmi?! 27 Ularning ota–bobolari Meni unutib, Baalga sajda qilgan edilar. Shu singari, bu soxta payg‘ambarlar «Xalq Egamizni unutsin», deya bir–birlariga tushlarini aytishadi. 28 Mayli, tush ko‘rgan payg‘ambar tushini aytsin, so‘zimni eshitgan esa uni sadoqat bilan e’lon qilsin. Axir, somon bilan bug‘doyning farqi bor–ku! — deb aytmoqda Egamiz. 29 — Mening so‘zim olovday kuydiradi. Qoyani yoradigan bolg‘aday zarba beradi.” Egamizning kalomi shudir.

30 Egamiz shunday demoqda: “Bu payg‘ambarlar «Egamizning so‘zi» deb bir–biridan gap o‘g‘irlaydi. Men ularga qarshiman. 31 Ha, Men o‘sha payg‘ambarlarga qarshiman, — deb aytmoqda Egamiz. — Ular o‘zlaricha valdirab yuradilar, yana «bu Egamizning so‘zlari», deb aytadilar. 32 Uydirma tushlarini aytgan payg‘ambarlarga qarshiman! Ular yolg‘onlariyu telbaligi bilan xalqimni yo‘ldan ozdirishmoqda. Ularni Men tayinlamaganman, xalqimning oldiga Men yubormaganman. Xalqimga ularning zarracha ham foydasi yo‘q.” Egamizning kalomi shudir.

Yuk haqida

33 Egamiz menga dedi: “Ey Yeremiyo, agar xalqimdan bo‘lgan birorta odam, payg‘ambar yoki ruhoniy sendan: «Bu safar Egamiz bizga nima yuklamoqchi?*» deb so‘rasa, sen shunday deb javob ber: «Sizlar o‘zlaringiz Egamizga yuk bo‘ldingizlar*. Endi U sizlarni uloqtirib tashlaydi.» 34 Bordi–yu, biron odam, payg‘ambar yoki ruhoniy: «Egamizning so‘zi bizga yuk bo‘ldi», deb aytadigan bo‘lsa, Men unday odamni butun xonadoni bilan jazolayman. 35 Sizlar bir–biringizdan: «Egamiz nima deb javob berdi?» yoki «Egamiz nima deb aytdi?» deb so‘ranglar. 36 Ammo: «Egamiz bizga nima yuklamoqchi?» deb boshqa so‘ramanglar. Zero, odamlar bu iborani ishlatib, o‘z so‘zlarini ishonarli qilmoqchi bo‘ladilar, barhayot Xudo, Sarvari Olam — Xudoyingizning so‘zlarini buzib aytadilar. 37 Sizlar esa payg‘ambarning oldiga borganingizda, undan: «Egamiz sizga nima deb javob berdi?» yoki «Egamiz sizga nima dedi?» deb so‘ranglar. 38 Bordi–yu, sizlar gapimga kirmay: «Egamiz bizga nima yuklamoqchi?» deb yana so‘rasangizlar, 39 Men sizlarni yuk ko‘targanday ko‘tarib*, O‘z huzurimdan uloqtirib tashlayman. Ota–bobolaringizga O‘zim bergan shaharni ham shu ko‘yga solaman.

40 Abadiy isnod va sharmandalikka duchor qilaman. Bunday sharmandalikni unutib
bo‘lmaydi.”

24–BOB

Ikki savat anjir

1 Egamiz menga Ma’bad oldida turgan ikki savat anjirni ko‘rsatdi. Bu voqea Bobil
shohi Navuxadnazar* Quddusdagi Yahudo shohi Yohayixinni*, Yahudo a’yonlarini,
hunarmandlaru temirchilarni Bobilga asir qilib olib ketgandan so‘ng sodir bo‘ldi. Shoh
Yohayixin Yohayiqimning o‘g‘li edi. 2 Men ko‘rgan savatlarning birida yaxshi chillaki
anjirlar, boshqasida esa yomon, yeb bo‘lmaydigan anjirlar bor edi.
3 Egamiz mendan:
— Yeremiyo, nimani ko‘ryapsan? — deb so‘radi.
— Anjirlarni, — deb javob berdim men. — Yaxshi anjirlar nihoyatda yaxshi ekan,
yomonlari esa yeb bo‘lmaydigan darajada irib ketgan ekan.
4 Shunda Egamiz menga O‘z so‘zini ayon qildi: 5 Isroil xalqining Xudosi — Egamiz
shunday demoqda: “Bobilliklarning* yurtiga surgun bo‘lgan Yahudo asirlari o‘sha yaxshi
anjirlarga o‘xshaydi. Men ularga iltifot ko‘rsataman. 6 Nazarimni solib, yaxshilik qilaman,
ularni bu yurtga qaytarib olib kelaman. Ularni yo‘q qilmayman, balki qayta bunyod
etaman. Qo‘porib tashlamayman, balki barqaror qilaman. 7 Qalblariga Meni bilish
istagini solaman, ular Meni Egamiz deb tan oladilar. Butun qalblari bilan Menga
qaytadilar. Ular Mening xalqim bo‘ladi, Men esa ularning Xudosi bo‘laman.”
8 Ammo Yahudo shohi Zidqiyo* to‘g‘risida, uning a’yonlari, Quddusning omon qolgan
aholisi va Misrga qochib borganlari to‘g‘risida Egamiz shunday demoqda: “Ular yeb
bo‘lmaydigan anjirlarga o‘xshaydi. Irigan anjirlarni nima qilishsa, Men ham ularni
shunday qilaman. 9 Ularning boshiga shunday kulfat solamanki, buni ko‘rgan yer
yuzidagi barcha xalqlar dahshatga tushadi. Men ularni tarqatib yuborgan hamma joyda
odamlar ularning ustidan kuladi, ularni mazax qiladi, xor qiladi, nomini qarg‘ishlarda
ishlatadi. 10 Men ularga va ota–bobolariga bergan yurtdan ularni qirib
tashlamagunimcha boshlariga urush, ocharchilik va o‘lat yuboraman.”

25–BOB

Shimoldan kelgan dushman

1 Yahudo shohi Yo‘shiyo o‘g‘li Yohayiqim hukmronligining to‘rtinchi yilida*
Yeremiyoga Yahudo xalqi to‘g‘risida Egamizning so‘zi ayon bo‘ldi. Bobil taxtiga xuddi
o‘sha yili Navuxadnazar o‘tirgan edi. 2 Yeremiyo payg‘ambar Yahudo xalqi va Quddus
aholisiga shunday dedi: 3 “Omon o‘g‘li Yo‘shiyo Yahudoda hukmronlik qilgan davrning
o‘n uchinchi yilidan* tortib, to bugunga qadar Egamiz menga O‘z so‘zini ayon qilib
kelmoqda. Mana, yigirma uch yildirki, men sizlarga to‘xtovsiz gapiryapman, ammo sizlar
gaplarimga quloq solmayapsizlar. 4 Egamiz oldingizga payg‘ambar qullarini birin–ketin
yuborgan bo‘lsa ham, sizlar ularning gaplarini eshitmadingiz, ularga quloq solmadingiz.
5 Ular sizlarga aytishgan edi: «Qabih ishlaringizni bas qilinglar. Yomon yo‘ldan
qaytinglar. Shunda Egamiz sizlarga va ota–bobolaringizga abadiy mulk qilib bergan
yurtda qolasizlar. 6 Boshqa xudolarga ergashmanglar. Ularga xizmat qilmanglar, sajda

etmanglar. Yasagan butlaringiz bilan Egamizni g‘azablantirmanglar. Shunda Egamiz boshingizga falokat keltirmaydi.»

7 «Ammo sizlar gapimga quloq solmadingizlar, — deb aytmoqda Egamiz. — Butlaringiz bilan Meni g‘azablantirib, o‘z boshingizga falokat keltirdingizlar.» 8 Shu sababdan Sarvari Olam demoqda: «Sizlar gapimga kirmaganingiz uchun, 9 Men shimoldagi barcha qabilalarni yig‘aman. Bobil shohi qulim Navuxadnazarni ham chaqiraman, — deb aytmoqda Egamiz. — Ularni sizlarga qarshi, bu yurt aholisi va yon–atrofingizdagi xalqlarga qarshi tortib kelaman. Men sizlarni tamomila qirib bitiraman. Sizlarni ko‘rganlar dahshatga tushadi, ahvolingizni ko‘rgan odamlar qotib qoladi. Men yurtingizni abadiy xarobazorga aylantiraman. 10 Shunday qilamanki, orangizda shodu xurramlik sadolari bo‘lmaydi, kelin–kuyovning ovozi eshitilmaydi, tegirmonning tovushi chiqmaydi. Chirog‘ingiz yonmaydi. 11 Butun yurt vayron bo‘lib, xarobazorga aylanadi. Bu xalqlar yetmish yil mobaynida Bobil shohiga xizmat qilishadi.»

12 Egamiz shunday demoqda: «Yetmish yildan keyin esa Men Bobil shohini, uning xalqini va Bobilliklarning* butun yurtini qilgan gunohlari uchun jazolayman. Ularning yurti to abad huvullab qoladi. 13 O‘zim aytgan hamma kulfatlarni o‘sha yurtga yog‘diraman. Bu kitobda yozilgan hamma falokatlarni keltiraman. Yeremiyoning hamma xalqlarga qarshi aytgan bashoratlarini amalga oshiraman. 14 Bobilliklar ko‘plab xalqlaru buyuk shohlarga qul bo‘ladilar. Qilgan qilmishlariga yarasha jazolarini oladilar.»”

Xudo xalqlarni hukm qiladi

15 Isroil xalqining Xudosi — Egamiz menga shunday dedi: “Qo‘limdagi kosani ol. Bu kosa g‘azabim sharobiga to‘la. Men seni qaysi xalqlar oldiga yuborsam, bu kosadagi sharobdan ularga ichir. 16 Ular sharobdan ichadilar, gandiraklab qolib, aqldan ozadilar. Axir, Men ularga qarshi qilich yuboraman.”

17 Men Egamizning qo‘lidagi kosani oldim. Egamiz meni qaysi xalqlar oldiga yuborgan bo‘lsa, o‘sha xalqlarga sharobdan* ichirdim: 18 Quddus, Yahudo yurtining shaharlari va u yerdagi shohu a’yonlar xonavayron bo‘lsin deb, men ularga sharobdan ichirdim. Bugungacha ularning ahvolini ko‘rib odamlar yoqasini ushlaydi, xalqimning nomini qarg‘ishlarga qo‘shib ishlatishadi.

19 So‘ng men Misrga yo‘l oldim. Fir’avn, uning xizmatkorlari, a’yonlari, butun xalqi 20 va u yerda yashayotgan musofirlarga sharobdan ichirdim. So‘ng Uz nomli yurtning shohlariga, shuningdek, Ashqalon, G‘azo, Exron va talafot ko‘rgan Ashdodda* hukmronlik qilgan hamma Filist shohlariga sharobdan ichirdim. 21 So‘ng men Edom, Mo‘ab, Ommonga, 22 Tir, Sidon va dengiz ortidagi yurtlarning shohlariga sharobdan ichirdim. 23 Dedon, Temo, Buz* va sochini oldirib yuradigan* boshqa hamma xalqlarga sharobdan ichirdim. 24 Hamma Arabiston shohlariga, sahroda yashaydigan har xil ko‘chmanchi qabilalarning hamma shohlariga sharobdan ichirdim. 25 Zimri, Elam va Midiya yurtlarining hamma shohlariga sharobdan ichirdim. 26 Shimoldagi uzoq–yaqinda bo‘lgan hamma shohlarga sharobdan ichirdim. Yer yuzidagi barcha saltanatlarga birin–ketin borib keldim. Oxiri kosadagi sharobdan Bobil* taxtida o‘tirgan shoh ichadigan bo‘ldi.

27 Egamiz menga dedi: “Ularga shunday deb ayt: «Isroil xalqining Xudosi — Sarvari Olam demoqda: g‘azab kosamdan ichinglar! Mast bo‘lib qusinglar! Turmaydigan bo‘lib yiqilinglar, chunki Men sizlarning ustingizga qilich yuboryapman.» 28 Bordi–yu, ular

qo‘lingdagi kosani olishdan va sharob ichishdan voz kechsalar, sen ularga shunday deb ayt: «Sarvari Olam sizlarga demoqda: ichishingiz shart! 29 Mana, O‘zimga tegishli Quddus shahriga kulfat yog‘dira boshladim. Sizlar jazodan qochib qutularmidingiz?! Yo‘q, jazodan qutula olmaysizlar! Men yer yuzidagi barcha odamlarni urush balosiga giriftor etaman, — deb aytmoqda Sarvari Olam.»

30 Shuning uchun, ey Yeremiyo, sen bu so‘zlarning hammasini ularga ayt:

«Egamiz yuksakdan sherday o‘kiradi,
Muqaddas makonidan sado beradi.
Yurtiga shiddat bilan o‘kiradi.
Uzum ezuvchilar kabi* baqiradi,
Yer yuzidagi hamma insonlarga hayqiradi.
31 Gumburlashi dunyoning chetigacha eshitiladi.
Zero, Egamiz xalqlarga da’vo qilmoqda,
Dunyodagi odamzodni U hukm etmoqda,
Fosiqlarni qilichdan o‘tkazmoqda.
Egamizning kalomi shudir.

32 Sarvari Olam shunday demoqda:
Qaranglar, falokat kelmoqda,
Xalqdan xalqqa yuqmoqda!
Dunyoning to‘rt burchagidan
Kuchli bo‘ron ko‘tarilmoqda!

33 O‘sha kuni butun yer yuzi, bu boshidan narigi chetigacha Egamizning qudratidan nobud bo‘lgan odamlarning jasadlariga to‘ladi. Marhumlar uchun hech kim marsiya aytmaydi, hech kim ularni yig‘ib ko‘mmaydi. Ular yer ustida go‘ngday yotaveradi.

34 Ey cho‘ponlar, uvvos solib yig‘langlar!
Ey yo‘lboshchilar, kulga belaninglar!*
Bo‘g‘izlanadigan kuningiz yetib keldi,
Jasadlaringiz yerda sochilib yotadi,
Chilparchin bo‘lgan qimmatbaho ko‘zaday bo‘ladi.
35 Cho‘ponlar hech qayerga qocha olmaydi,
Yo‘lboshchilar qutulolmaydi.
36 Eshiting! Yo‘lboshchilar faryod qilmoqda,
Cho‘ponlar ho‘ngramoqda!
Egamiz ularning yaylovlarini nobud qilyapti.
37 So‘lim maysazorlarini payhon etyapti.
Axir, Egamizning g‘azabi alanga oldi.
38 O‘lja qidirib uyasidan chiqqan sherday,
Egamiz O‘z makonidan chiqdi.
Egamizning alangali g‘azabi tufayli,
Urush balosi tufayli
Butun yurt xarobazorga aylanadi.»”

26–BOB

Yeremiyoni o‘limga hukm qilmoqchi bo‘lishadi

1 Yo‘shiyo o‘g‘li Yohayiqimning Yahudodagi ilk hukmronligi davrida* Yeremiyoga
Egamiz O‘z so‘zini ayon qildi. 2 Egamiz shunday dedi: “Ey Yeremiyo, uyimning hovlisiga
borib tur. Yahudo shaharlaridan uyimga sajda qilmoqchi bo‘lib kelgan hamma
odamlarga gapir. Men senga amr qilgan barcha so‘zlarni, birontasini ham qoldirmay
ularga ayt. 3 Balki, ular Men aytgan gaplarga quloq solib, yovuz yo‘llaridan qaytishar.
Shunda Men ham shaxtimdan qaytaman. Qilgan qabihliklari tufayli boshlariga
keltirmoqchi bo‘layotgan falokatni keltirmayman. 4 Sen ularga shunday deb ayt:
«Egamiz demoqda: sizlar Menga quloq solmadingizlar, bergan qonunlarimni
bajarmadingizlar. 5 Oldilaringizga qayta–qayta payg‘ambar qullarimni jo‘natdim, ammo
sizlar ularning gapiga kirmadingizlar. Agar endi aytganlarimni bajarmasangizlar, 6 Men
bu uyni Shilo‘ning* ko‘yiga solaman. Bu shaharni esa yer yuzidagi xalqlar orasida la’nati
qilaman.»”

7 Ruhoniylar, payg‘ambarlar va butun xalq Yeremiyoning Egamiz uyida aytayotgan
bu gaplarini eshitishdi. 8 Yeremiyo Egamizning amr qilgan hamma so‘zlarini butun
xalqqa aytib bo‘lgach, ruhoniylar, payg‘ambarlar va butun xalq unga tashlanib:

— O‘ldiringlar uni! — deya baqira boshlashdi. 9 — Sen hali Egamiz nomidan
bashorat qiladigan bo‘lib qoldingmi?! “Bu uy Shilo‘ning ko‘yiga tushadi, bu shahar esa
vayron bo‘lib huvullab qoladi”, deb aytishga qanday jur’at etding?!

Egamiz uyidagi butun olomon Yeremiyoni o‘rab oldi.

10 Bundan xabar topgan saroydagi Yahudo a’yonlari Egamizning uyiga keldilar.
Qozilik qilish uchun Yangi darvozaning kiraverishidagi kursilarga o‘tirdilar*. 11 Shunda
ruhoniylar bilan payg‘ambarlar yetib kelgan a’yonlarga va xaloyiqqa murojaat qilib
dedilar:

— Bu odam o‘limga loyiq! U shahrimizga qarshi bashorat qildi, buni o‘z qulog‘ingiz
bilan eshitdingiz.

12 Yeremiyo o‘z navbatida shunday dedi:

— Sizlar eshitgan barcha so‘zlarni gapirishim uchun meni Egam yubordi. “Bu uyga
va shaharga qarshi bashorat qil”, dedi. 13 Agar sizlar yomon yo‘lingizdan qaytsangiz,
turmush tarzingizni o‘zgartirsangiz, Egangiz Xudoga itoat etsangiz, Egamiz ham
shaxtidan qaytadi, sizlarga e’lon qilgan falokatni boshingizga keltirmaydi. 14 Mana, men
sizning ixtiyoringizdaman. Nimani to‘g‘ri deb bilsangiz, menga shuni qiling. 15 Faqat bilib
qo‘yinglar: agar meni o‘ldirsangizlar, sizlar ham, shahar aholisi ham aybsiz odamning
qonini to‘kkan bo‘lasizlar. Zotan, bu so‘zlarning hammasini sizlarga aytishim uchun
Egamizning O‘zi meni yuborgan.

16 So‘ng a’yonlar bilan butun xaloyiq ruhoniylarga va payg‘ambarlarga shunday
dedilar:

— Yo‘q, bu odam o‘limga loyiq emas. U bizga Egamiz Xudo nomidan gapiryapti–ku!

17 Yurtning bir nechta oqsoqoli ham chiqib, to‘plangan butun olomonga shunday
dedilar:

18 — Yahudo shohi Hizqiyo davrida* bashorat qilib yurgan Mo‘rashatlik Mixo ham
Yahudo xalqiga shunday deb aytgan edi*:

“Sarvari Olam demoqda:
«Quddus daladay shudgor qilinadi,
Sion xarobazor bo‘ladi,
Egamizning uyi turgan tog‘ni*
Qalin o‘rmonzor qoplaydi.»”

19 O‘shanda Yahudo shohi bilan butun xalq payg‘ambarni o‘ldirganmidi?! Aksincha, shoh
Egamizdan qo‘rqib, Undan marhamat so‘ragan edi. Egamiz esa shaxtidan qaytib, ularga
e’lon qilgan falokatni boshlariga keltirmadi. Biz–chi? Biz o‘zimizning boshimizga o‘zimiz
falokat keltiryapmiz–ku!
20 Egamizning nomidan bashorat qilgan yana bir odam bor edi. U Xirat–Yo‘rimlik
Shamayo o‘g‘li Uriyo edi. U ham xuddi Yeremiyoga o‘xshab bu yurt va shaharga qarshi
bashorat qilgan edi. 21 Shoh Yohayiqim, uning hamma soqchilari va a’yonlari Uriyoning
so‘zlarini eshitdilar. Shunda shoh Uriyoni o‘ldirishga qasd qildi. Bundan xabardor
bo‘lgan Uriyo qo‘rqqanidan Misrga qochib ketdi. 22 Shoh Yohayiqim uning orqasidan
Axbor o‘g‘li Elnatanni odamlari bilan jo‘natdi. 23 Ular Uriyoni Misrda tutib olib, shohning
oldiga olib kelgan edilar. Shoh uni o‘ldirib, jasadini avom xalqning qabristoniga
tashlagan edi.
24 Shunga qaramay, Shofon o‘g‘li Oxixam Yeremiyoning tarafini oldi. Yeremiyoni
o‘ldirmoqchi bo‘lgan olomonning qo‘liga topshirishga yo‘l qo‘ymadi.

27–BOB

Yeremiyo va ho‘kiz bo‘yinturug‘i

1 Yo‘shiyo o‘g‘li Zidqiyo* Yahudoda hukmronligining ilk davrida*, Egamiz O‘z so‘zini
Yeremiyoga ayon qildi. 2 Egamiz menga shunday dedi: “Yog‘ochdan bir bo‘yinturuq yasa,
qayishlar yordamida uni gardaningga osib ol. 3 So‘ng esa Quddusga — shoh Zidqiyo
huzuriga kelgan elchilar orqali Edom, Mo‘ab, Ommon, Tir va Sidon shohlariga xabar
jo‘nat. 4 Elchilarga buyur, ular o‘z shohlariga quyidagi xabarni yetkazsinlar:

«Isroil xalqining Xudosi — Sarvari Olam shunday demoqda: shohlaringizga
aytinglar, 5 bu dunyoni, yer yuzidagi odamzodu hayvonlarni Men O‘z qudratim va
ajoyibotlarim bilan yaratganman. Shunday ekan, ularni xohlagan odamga
beraman. 6 Ana shu yurtlarning barchasini Men Bobil shohi qulim
Navuxadnazarga* berdim. Hattoki yovvoyi hayvonlarni ham uning izmiga
topshirdim, ular ham Navuxadnazarga xizmat qilishadi. 7 Navuxadnazarning
shohligi qulaguncha* hamma xalqlar unga, uning o‘g‘liyu nevarasiga xizmat
qiladi. Keyin esa Navuxadnazarning o‘zi ham ko‘plab xalqlarga va buyuk
shohlarga xizmat qilishga majbur bo‘ladi.
8 Bobil shohi Navuxadnazarga xizmat qilmagan, unga bo‘yin bermagan har bir
xalq va shohlikni Men urushga, qahatchiligu o‘latga giriftor etib, qirib
tashlayman, — deb aytmoqda Egamiz. — O‘sha xalqni Navuxadnazar orqali
butunlay yo‘q qilmagunimcha qo‘ymayman. 9 Sizlar Bobil shohiga xizmat
qilmaysizlar, deya karomat qilayotgan payg‘ambarlaringizga, folbinlaringizga,
tush ta’birchilariga, bashoratgo‘y odamlaringizga, sehrgarlaringizga

ishonmanglar. [10] Ular sizlarga yolg‘on bashorat qilyaptilar. Agar ularga quloq solsangizlar, Men sizlarni bu yerdan chiqarib yuboraman. Uzoq yurtlarga surgun qilaman, oqibatda sizlar halok bo‘lasizlar. [11] Bobil shohining bo‘yinturug‘i ostida bo‘yin eggan, unga xizmat qilgan har bir xalqni esa Men o‘z yurtida qoldiraman. Ular o‘z yurtlarida yashab, o‘z yeriga ishlov beradilar. Egamizning kalomi shudir.»”

[12] Men Yahudo shohi Zidqiyoni ham xuddi shunday deb ogohlantirdim: “Bobil shohiga bosh eging, uning o‘ziga ham, xalqiga ham xizmat qiling, shunda joningizni saqlab qolgan bo‘lasiz. [13] Egamiz: «Bobil shohiga xizmat qilmagan har bir xalq urush, qahatchilik va o‘latdan nobud bo‘ladi» degan edi. Nahotki o‘zingizning va o‘z xalqingizning joniga zomin bo‘lsangiz?! [14] «Bobil shohiga xizmat qilmang», deb aytayotgan payg‘ambarlarning gaplariga quloq solmang, ular sizlarga yolg‘on bashorat qilyapti. [15] O‘sha payg‘ambarlar haqida Egamiz shunday deb aytdi: «Ularni Men yubormaganman. Ular Mening nomimdan yolg‘on bashorat qilishyapti. Shunday ekan, Men sizlarni va sizlarga bashorat qilayotgan payg‘ambarni bu yurtdan uloqtirib tashlayman. Hammangiz halok bo‘lasizlar.»”

[16] So‘ng men ruhoniylarga va butun xalqqa gapirdim: “Egamiz shunday demoqda: «Ma’badning ashyolari Bobildan yaqinda olib kelinadi, deb aytayotgan payg‘ambarlarga quloq solmanglar. Ular sizlarga yolg‘on bashorat qilishyapti. [17] Ularga quloq solmanglar! Joningizni saqlab qolmoqchi bo‘lsangizlar, Bobil shohiga xizmat qilinglar. Aks holda, shahar vayron qilinadi! [18] Agar ular, haqiqatan ham, payg‘ambarlar bo‘lishsa, agar chindan ham Mening kalomim ularga ayon bo‘lgan bo‘lsa, unda ular Men, Sarvari Olamga yolvorishsin. ‘Sening uyingdagi, shoh saroyidagi va Quddusdagi qolgan ashyolar Bobilga olib ketilmasin’, deb Menga iltijo qilishsin.» [19-21] Axir, Sarvari Olam demoqda: «Bobil shohi Navuxadnazar* Yahudoga bostirib kelib, taxtda o‘tirgan Yohayiqim o‘g‘li Yohayixinni* Yahudo amaldorlari bilan birga asir qilib olib ketganda, Ma’baddagi ikkita bronza ustunni, hovuzni, tagkursilarni va Quddusdagi ayrim idishlarni qoldirib ketgan edi.» Ammo o‘sha qolgan–qutgan ashyolar haqida Isroil xalqining Xudosi — Sarvari Olam shunday demoqda: «O‘z uyimda, shoh saroyida va Quddusda qolgan ashyolar haqida aytadigan gaplarimni eshitinglar: [22] ashyolarning hammasi Bobilga olib ketiladi*. Men ularni olib kelgani bormagunimcha, o‘sha yerda qoladi. So‘ng esa Men ularni qaytarib olib kelaman, shu yerga joylashtiraman.» Egamizning kalomi shudir.”

28–BOB

Soxta payg‘ambar Xanoniyo

[1] Ayni o‘sha yili, ya’ni Yahudo shohi Zidqiyo hukmronligining ilk davrida, to‘rtinchi yili beshinchi oyida* Xanoniyo payg‘ambar Egamiz uyidagi ruhoniylar va xalq oldida menga gapirdi. Xanoniyo Givonlik Azzurning o‘g‘li edi. U menga shunday dedi:

[2] — Isroil xalqining Xudosi — Sarvari Olam demoqda: “Bobil shohi solgan bo‘yinturuqni Men sindirib tashladim. [3] Shoh Navuxadnazar* uyimdan Bobilga olib ketgan hamma ashyolarni Men ikki yil ichida bu yerga qaytarib olib kelaman. [4] Bundan tashqari, Bobilga surgun bo‘lgan Yahudo shohi Yohayiqim o‘g‘li Yohayixinni* va u bilan birga hamma asirlarni* qaytarib olib kelaman. Men Bobil bo‘yinturug‘ini sindirib

tashlayman.” Egamizning kalomi shudir.
5 Shunda men Egamiz uyida hozir bo‘lgan ruhoniylar va xalq oldida Xanoniyoga
6 shunday dedim:
— Omin! Iloyim, aytganingizday bo‘lsin. Bashorat qilgan so‘zlaringizni Egamizning O‘zi bajo aylasin. O‘z uyining ashyolariyu asirlarni Bobildan qaytarib, bu yerga olib kelsin. 7 Endi esa men sizga va xalqqa aytmoqchi bo‘lgan mana bu gaplarimni eshiting.
8 Sizdan va mendan oldin o‘tgan payg‘ambarlar ko‘p yurtlaru buyuk shohliklarga qarshi urush, ocharchilik va o‘latni bashorat qilgan edilar. 9 Tinchlikni bashorat qilgan payg‘ambarning bashorati bajo bo‘lganidan keyingina*, xalq uni “haqiqatan ham Egamizning elchisi” deb tan olar edi.
10 So‘ng Xanoniyo payg‘ambar Yeremiyoning gardanidagi bo‘yinturuqni olib sindirdi–da, 11 to‘planib turgan xaloyiqqa murojaat qilib dedi:
— Egamiz aytmoqda: “Xuddi shunday qilib, Men ikki yil ichida Bobil shohi Navuxadnazarning xalqlarga solgan bo‘yinturug‘ini olib, sindirib tashlayman.”
Bu gaplardan keyin Yeremiyo o‘z yo‘liga ketdi.
12 Xanoniyo payg‘ambar Yeremiyo payg‘ambarning gardanidagi bo‘yinturuqni sindirgandan keyin, ko‘p o‘tmay Egamiz Yeremiyoga O‘z so‘zini ayon qilib dedi:
13 “Xanoniyoning oldiga borib, shunday deb ayt: «Egamiz aytmoqda: sen yog‘och bo‘yinturuqni sindirding, ammo o‘shaning o‘rniga Men temir bo‘yinturuq yasayman.
14 Zero, Isroil xalqining Xudosi — Sarvari Olam shunday demoqda: Men bu xalqlarning gardaniga temir bo‘yinturuq solaman. Ularning hammasi Bobil shohi Navuxadnazarga xizmat qilishadi. Ha, ularning hammasi Navuxadnazarga bosh egadi. Men hatto yovvoyi hayvonlarni ham Navuxadnazarning ixtiyoriga topshiraman.»”
15 Yeremiyo payg‘ambar Xanoniyo payg‘ambarga dedi:
— Menga qara, Xanoniyo, Egamiz seni yubormagan. Sen esa bu xalqni yolg‘on gaplaringga ishontirib qo‘yding. 16 Shu qilganing uchun Egamiz shunday demoqda: “Men seni yer yuzidan daf qilaman. Sen o‘z bashoratlaring bilan xalqni Egangga qarshi qo‘zg‘atganing uchun shu yiliyoq o‘lasan.”
17 O‘sha yilning yettinchi oyida* Xanoniyo olamdan o‘tdi.

29–BOB

Yeremiyoning Bobildagi yahudiylarga yozgan maktubi

1 Yeremiyo payg‘ambar Bobilda asirlarning orasida omon qolgan oqsoqollarga, ruhoniylarga, payg‘ambarlarga va asirlikda yurgan butun xalqqa Quddusdan bir maktub yo‘lladi. Bu asirlarni shoh Navuxadnazar* Quddusdan Bobilga surgun qilgan edi. 2 Shoh Yohayixin*, ona malika, a’yonlar, Yahudo va Quddus yo‘lboshchilari, hunarmandlaru temirchilar Quddusdan surgun qilingandan keyin bu maktub yozildi. 3 Yeremiyo maktubini Shofon o‘g‘li Elasax va Xilqiyo o‘g‘li Gamariyo orqali jo‘natdi. Yahudo shohi Zidqiyo* bu odamlarni Bobil shohi Navuxadnazar huzuriga yuborgandi. Maktub quyidagi mazmunda edi:

> 4 Isroil xalqining Xudosi — Sarvari Olam Quddusdan Bobilga surgun qilgan barcha odamlarga shunday demoqda: 5 “O‘zlaringizga yashash uchun uylar quringlar, bog‘–rog‘lar yaratinglar, mevalaridan tanovul qilinglar. 6 Uylaninglar,

o‘g‘il–qizlar ko‘ringlar, o‘g‘illaringizga kelinlar olib beringlar. Qizlaringizni uzatinglar, ular ham uvali–juvali bo‘lishsin. O‘sha yerda ko‘payinglar, soningiz kamaymasin. 7 Men sizlarni surgun qilgan o‘sha shaharning tinch va farovon hayoti uchun mehnat qilinglar. O‘sha shaharning osoyishtaligi uchun Menga ibodat qilinglar. Shahar tinch bo‘lsa, sizlar ham tinch bo‘lasizlar.” 8 Isroil xalqining Xudosi — Sarvari Olam shunday demoqda: “Orangizdagi payg‘ambarlar bilan folbinlar sizlarni laqillatishmasin. Ular ko‘rgan tushlarini aytganlarida quloq solmang, 9 ular Mening nomim bilan bashorat qilib aytayotgan hamma gaplari yolg‘ondir. Ularni Men oldingizga yubormaganman.” Egamizning kalomi shudir.

10 Egamiz shunday demoqda: “Bobil hukmronligiga yetmish yil bo‘lgandan keyin, Men oldingizga boraman. Bergan ezgu va’damga binoan sizlarni shu yerga qaytarib olib kelaman. 11 Axir, Men sizlar to‘g‘ringizda tuzgan rejalarimni bilaman, — deb aytmoqda Egamiz. — Bu rejalarim sizlarga kulfat emas, farovonlik olib keladi, yorug‘ kelajagu umid beradi. 12 O‘sha damlarda Menga qilgan iltijoyu ibodatlaringiz ijobat bo‘ladi. 13 Meni butun qalbingiz bilan izlasangizlar, topasizlar. 14 Ha, Meni topasizlar, — deb aytmoqda Egamiz. — Men sizlarni yana farovonlikka erishtiraman*. Sizlarni surgun bo‘lgan barcha xalqlar orasidan, hamma yurtlardan yig‘ib olaman. Sizlarni O‘zim chiqarib yuborgan ona yurtingizga qaytarib olib kelaman.” Egamizning kalomi shudir.

15 Sizlar: “Egamiz Bobilda bizga payg‘ambarlar berdi”, deb aytishingiz mumkin. 16 Endi Dovud taxtida o‘tirgan shoh haqida, hanuz Quddusda yashab kelayotgan butun xalq haqida, sizlar bilan surgunga ketmagan qarindosh–urug‘ingiz haqida Egamizning aytgan so‘zlarini eshiting. 17 Sarvari Olam shunday demoqda: “Men ularning boshiga urush, ocharchilik va o‘lat balosini keltiraman. Ularni yeb bo‘lmaydigan chirik anjirga o‘xshatib qo‘yaman. 18 Qilich, ocharchilik va o‘lat bilan ularning ketidan quvaman. Bularni ko‘rgan yer yuzidagi hamma shohliklar dahshatga tushadi. Men ularni tarqatib yuborgan joyda ularning ahvolini ko‘rgan hamma odamlar dahshatga tushib, yoqasini ushlaydi. Ularni masxara qilib, nomini qarg‘ishlarda ishlatishadi. 19 Axir, ular gapimga quloq solmadilar, — deb aytmoqda Egamiz. — Men ularning oldilariga payg‘ambar qullarimni uzluksiz yuborib turdim. Biroq ular payg‘ambarlarimga quloq solmadilar.” Egamizning kalomi shudir.

20 Shunday ekan, ey Egamiz Bobilga surgun qilgan asirlar, Egamizning gaplariga quloq solinglar! 21 Isroil xalqining Xudosi — Sarvari Olam Xulayo o‘g‘li Axab va Masiyo o‘g‘li Zidqiyo haqida shunday demoqda: “Ular Mening nomim bilan yolg‘on bashoratlar aytib yurishibdi. Men ularni Bobil shohi Navuxadnazar qo‘liga topshiraman. Sizlarning ko‘zingiz oldida o‘ldirtirib yuboraman.
22 Shundan keyin Bobildagi Yahudolik asirlar birovni qarg‘aganda shunday deb aytadigan bo‘ladi: «Iloyim, boshingga Bobil shohi tiriklayin yoqib yuborgan Zidqiyo va Axabning kuni tushsin.» 23 Axab bilan Zidqiyoning qismati shudir, chunki ular Isroilda razilliklar qildilar. Qo‘shnilarining xotinlari bilan zino qildilar. Men ularga amr qilmagan bo‘lsam ham, Mening nomimdan yolg‘on gapirdilar. Qilgan qilmishlarini bilaman, O‘zim shularga guvohman.” Egamizning kalomi shudir.

Shamayoga qarshi bashorat

[24-25] Isroil xalqining Xudosi — Sarvari Olam menga Naxalamlik Shamayo to‘g‘risida bir xabar berdi. Shamayo o‘zboshimchalik qilib, Quddusdagi hamma odamga, Masiyo o‘g‘li ruhoniy Zafaniyoga va boshqa hamma ruhoniylarga bir maktub jo‘natgan ekan. U maktubida ruhoniy Zafaniyoga shunday deb yozgan ekan:

> [26] Egamizning O‘zi sizni Yohayido o‘rniga ruhoniy qilib tayinladi. Siz, Egamiz uyining nazoratchisi sifatida, o‘zini payg‘ambar qilib ko‘rsatgan har bir telbani kishanlab, zanjirband qilishingiz lozim. [27] Nega endi Onoto‘tlik Yeremiyoga indamay yuribsiz? U sizlarning orangizda o‘zini payg‘ambar qilib ko‘rsatib yuribdi–ku! [28] U Bobilga, bizga maktub jo‘natib, maktubida: “Sizlar uzoq yillar davomida surgunda yashaysizlar. O‘zlaringizga yashash uchun uylar quringlar, bog‘–rog‘lar yaratinglar, mevasidan tanovul qilinglar”, deb yozibdi.

[29] Bu maktubni Yeremiyoga ruhoniy Zafaniyo o‘qib berdi. [30] Shunda Yeremiyoga Egamiz O‘z so‘zini ayon qildi: [31] “Surgundagi barcha odamlarga shunday deb yoz:

> Naxalamlik Shamayo haqida Egamiz demoqda: «Shamayoni Men yubormaganman. U esa bashorat qilib, sizlarni yolg‘on gaplariga ishontirib qo‘ydi. [32] Shuning uchun Men uni butun xonadoni bilan birga jazolayman. Bu xalq orasida uning avlodidan bo‘lgan bironta odam ham tirik qolmaydi. Ularning birontasi ham xalqimga Men qiladigan yaxshiligimni ko‘rmaydi, chunki Shamayo o‘z gaplari bilan xalqimni Menga qarshi qo‘zg‘atmoqchi bo‘ldi.» Egamizning kalomi shudir.”

30–BOB

Egamiz O‘z xalqiga va’da beradi

[1] Egamizning so‘zi Yeremiyoga ayon bo‘ldi. [2] Isroil xalqining Xudosi — Egamiz shunday dedi: “Men senga aytgan barcha so‘zlarimni o‘rama qog‘ozga* yozib qo‘y. [3] Shunday kunlar keladiki, Men xalqim Isroilni va Yahudoni yana farovonlikka erishtiraman*. Ota–bobolariga bergan yurtga ularni olib kelaman. Ular o‘sha yurtga egalik qiladilar.” Egamizning kalomi shudir.

[4] Egamiz menga Isroil va Yahudo haqida shunday so‘zlarni aytdi:

> [5] Egamiz demoqda:
> “Sarosima ovozlarini eshitdik.
> Ana, vahima sadolari eshitilmoqda! Tinchlik yo‘q!
> [6] Qani, so‘rab ko‘ring:
> Erkak kishi tug‘adimi?
> Nega unda men ko‘rgan har bir kuchli erkak
> Dard tutgan ayolday belini ushlab olgan?
> Nega har bir erkakning yuzi bo‘zday oqargan?
> [7] Evoh, naqadar dahshatli bu kun!
> Bunday kun hech qachon bo‘lmagan.
> Yoqub nasli uchun bu jabr kuni bo‘ladi,

Ammo bu kundan xalqim qutqariladi.”

8 Sarvari Olam shunday demoqda: “O‘sha kuni Men xalqimning bo‘ynidagi
bo‘yinturuqni sindiraman, kishanlarini uzib tashlayman. Mening xalqim endi hech
qachon ajnabiylarga qul bo‘lmaydi. 9 Ular Men, O‘z Egasi Xudoga va Men taxtga
o‘tqizadigan Dovud avlodidan bo‘lgan shohga xizmat qilishadi.”

10 Egamiz shunday demoqda:
“Ey qulim Yoqub, qo‘rqma!
Ey Isroil* xalqi, sarosimaga tushma!
Men seni olis yurtdan ozod qilib olib kelaman,
Naslingni surgun bo‘lgan mamlakatdan qutqaraman.
Ey Yoqub nasli, sen yurtingga qaytasan,
Osoyishta va bexatar yashaysan.
Endi hech kim seni qo‘rqitmaydi.”
11 Egamiz shunday demoqda:
“Men sen bilan birga bo‘laman,
O‘zim seni qutqaraman.
Seni xalqlar orasiga tarqatgan edim,
Endi o‘sha xalqlarning hammasini qirib tashlayman.
Seni esa qirib yubormayman,
Ammo jazosiz ham qoldirmayman,
Adolat ila jazoingni beraman.”

12 Mana, Egamiz O‘z xalqiga shunday demoqda:
“Yarangni davolab bo‘lmaydi,
Sening darding bedavodir.
13 Arzingni eshitadigan odam yo‘q,
Yarang uchun dori–darmon yo‘q,
Seni davolab bo‘lmaydi.
14 Hamma o‘ynashlaring* seni unutdi,
Ularning sen bilan ishi yo‘q.
Men dushman kabi, senga hamla qildim,
Shafqatsiz jazoingni berdim.
Og‘ir jinoyating, ko‘p gunohlaring uchun
Seni shu ko‘yga soldim.
15 Nechun jon achchig‘ida baqiryapsan?!
Yarangni davolab bo‘lmaydi, axir!
Og‘ir jinoyating, ko‘p gunohlaring uchun
Seni shu ko‘yga soldim.
16 Ammo seni halok qilganlar halok bo‘ladi,
Dushmanlaringning hammasi surgun qilinadi.
Seni talon–taroj qilganlar talanadi.
Senga hujum qilganlar bosib olinadi.
17 Dushmanlar seni «Tashlab ketilgan» deb atashsa ham,

«Hech kimning Quddus* bilan ishi yo‘q», deb aytishsa ham,
Men seni sog‘aytiraman,
Yarangga shifo beraman.”
Egamizning kalomi shudir.

18 Egamiz shunday demoqda:
“Men Yoqub naslining chodirlarini qayta tiklayman.
Xalqim xonadonlariga rahm–shafqat qilaman.
Shahar o‘z vayronalari ustida qayta bunyod bo‘ladi,
Saroy o‘z joyida tiklanadi.
19 U yerdan shukrona qo‘shiqlari eshitiladi,
Shodlik hayqiriqlari yangrab turadi.
Men xalqimni ko‘paytiraman,
Ularning soni kamaymaydi.
Ularni obro‘–e’tiborli qilaman,
Hech kim ularni oyoq osti qilmaydi.
20 Farzandlari oldingiday farovon hayot kechiradi,
Jamoasi oldimda mustahkam turadi.
Ularga jabr qilganlarni Men jazolayman.
21 Shahzodasi o‘zlaridan chiqadi,
Hukmdori Mening xalqimdan bo‘ladi.
Men uni O‘zimga yaqinlashtiraman,
Shunda u Menga yaqinlasha oladi.
Zotan, hech kim o‘zidan–o‘zi
Menga yaqinlashishga jur’at etmaydi!
— deb aytmoqda Egamiz. —
22 Shunda, ey Yoqub nasli, sizlar Mening xalqim bo‘lasizlar,
Men esa sizlarning Xudoyingiz bo‘laman.”

23 Qaranglar, Egamiz g‘azabga mindi,
Uning qahri bo‘ronga o‘xshaydi,
Avj olgan to‘fonday,
Fosiqlarning boshiga tushadi.
24 Egamiz niyatini to‘liq bajarmaguncha,
O‘z g‘azabidan tushmaydi.
Keyinchalik buni anglab olasiz.

31–BOB

Isroil xalqi ona yurtiga qaytib keladi

1 Egamiz shunday demoqda: “O‘sha vaqtda Men hamma Isroil qabilalarining Xudosi bo‘laman, ular esa Mening xalqim bo‘ladi.”

2 Egamiz shunday demoqda:
“Qirg‘indan omon qolgan Isroil xalqi
Tinchlik izlab safarga chiqqanda,

Sahroda inoyat topdi.”
3 Egamiz qadimda Isroilga zohir bo‘lib,
Shunday degan edi:
“Seni mangu sevgi bilan sevdim,
Senga sodiq bo‘lib keldim.
4 Ey bokira qiz Isroil,
Men seni qaytadan bunyod etaman.
Sen qayta bino bo‘lasan.
Sen yana childirmangni chalasan,
Quvonch ila raqsga tushasan.
5 Samariya qirlarida yana uzumzorlar barpo qilasan.
Tok ekkan dehqonlar o‘zlari yetishtirgan hosildan yeydilar.
6 Shunday kunlar keladiki,
Soqchilar Efrayim* qirlarida shunday deb jar soladilar:
«Kelinglar, Egamiz Xudoning oldiga boraylik!
Kelinglar, Quddusga* chiqaylik!»”

7 Egamiz shunday demoqda:
“Yoqub nasli uchun sevinch ila qo‘shiq ayting,
Ha, xalqlar sardori uchun Xudoni madh qiling.
Xudoga hamdu sanolar o‘qing, Unga yolvorib ayting:
«Ey Egamiz, O‘z xalqingni xalos qilgin!
Isroilning omon qolganlarini qutqargin!»
8 Men ularni shimoldan olib kelaman,
Dunyoning to‘rt burchagidan yig‘ib olaman.
Oralarida ko‘ru cho‘loqlar bo‘ladi,
Homilador ayollaru to‘lg‘oq tutayotganlar bo‘ladi.
Katta bir jamoa bo‘lib, bu yerga qaytib kelishadi.
9 Ular ko‘z yosh to‘kib, yo‘l yurishadi,
Ularni boshlab kelayotganimda iltijo qilishadi.
Men ularni suv buloqlari bo‘ylab yetaklayman,
Qoqilmasin deb, tekis yo‘ldan olib yuraman.
Zotan, Men Isroilning otasidirman,
Efrayim Mening to‘ng‘ich o‘g‘limdir.”

10 Ey xalqlar, Egamizning so‘zini eshitinglar,
Dengiz ortidagi yurtlarda shunday e’lon qilinglar:
“Egamiz Isroil xalqini tarqatib yubordi,
Ammo endi uni qayta yig‘ib oladi,
Cho‘pon suruvini qo‘riqlaganday,
Egamiz Isroilni qo‘riqlaydi.”
11 Zero, Yoqub naslini Egamiz ozod qildi,
Ulardan kuchliroq bo‘lgan bir xalqdan bu naslni qutqardi.
12 Yoqub nasli Quddus qirlarida quvonch ila ashula aytadi,
Egamiz bergan barakadan quvonadi.

Bug‘doy, sharob va zaytun moyi tufayli,
Suruvdagi qo‘zilaru podalardagi buzoqlar tufayli
Ularning yuzidan nur sochiladi.
Ular sug‘orilgan boqqa o‘xshaydigan bo‘ladi,
Butunlay qayg‘uni unutib yuborishadi.
13-14 Egamiz shunday demoqda:
“Qizlar xursand bo‘lib, raqsga tushadilar,
Erkaklarning yoshu qarisi shod bo‘ladi.
Men ularning qayg‘usini quvonchga aylantiraman,
Hasrat o‘rniga taskin va shodlik beraman.
Ruhoniylarni a’lo sifatli ovqatlar bilan to‘yg‘izaman,
Xalqimni barakalardan bahramand qilaman.”

Egamizning Isroilga bo‘lgan mehr–shafqati

15 Egamiz shunday demoqda:
“Rama shahridan* bir nido eshitilar,
Achchiq bir nolayu ohu fig‘on bu.
Bolalari uchun yig‘lar Rohila*,
Ovunishni xohlamas,
Axir, ular endi yo‘q.”
16 Egamiz shunday demoqda:
“Bo‘ldi bas, yig‘lama,
Ko‘z yoshlaringni to‘kma.
Zero, mehnating taqdirlanadi,
Farzandlaring dushman yurtidan qaytib keladi.
17 Kelajagingga umid bor,
Bolalaring o‘z yurtiga qaytib keladi,
— deb aytmoqda Egamiz. —

18 Efrayimning hasratini eshitdim:
«Meni jazolading, o‘zimga saboq oldim.
Men o‘jar bir buzoqqa o‘xshagan edim.
Meni qaytar, oldingga qaytib boray,
Axir, Egam Xudo Sensan.
19 Sendan yuz o‘girganimdan pushaymon bo‘ldim,
Es–hushimni yig‘ib olgach, ko‘ksimga urdim.
Yoshlikda isnodga qolganim tufayli
Sharmandayu sharmisor bo‘ldim.»

20 Efrayim — Mening aziz o‘g‘lonim,
Suyukli farzandimdir u!
Unga qarshi ko‘p gapirganim bilan,
Xayolimdan uni ketkizmayman.
Unga ich–ichimdan achinib ketdim,
Albatta unga rahm qilaman.”
Egamizning kalomi shudir.

21 Ey bokira qiz* Isroil,
O‘zing uchun yo‘l belgilarini qo‘y,
Yo‘nalish ustunlarini o‘rnat.
Kelgan yo‘lingni aniqlab ol.
Qayt, o‘z shaharlaringga qayt.
22 Ey vafosiz qiz,
Qachongacha ikkilanasan?!
Egamiz dunyoda yangi bir narsa yaratadi:
Isroil O‘z Xudosiga chirmashib oladi*.

Xudo xalqining yorqin kelajagi

23 Isroil xalqining Xudosi — Sarvari Olam shunday demoqda: “Men xalqimni yana farovonlikka erishtiraman*. Shunda Yahudo yurtidagi va barcha shaharlaridagi odamlar Quddusni shunday duo qiladigan bo‘lishadi:

«Ey muqaddas tog‘*,
Solihlik makoni,
Egamiz senga baraka bersin!»

24 Odamlar Yahudo yurtida va uning hamma shaharlarida yashaydilar. U yerda dehqonlar va qo‘ylarni boqadigan chorvadorlar bo‘ladi. 25 Men chanqaganlarning chanqog‘ini qondiraman, toliqqan jonga orom beraman. 26 Shunda odamlar miriqib uxlab, kuchga to‘lib uyg‘onadilar*.”

27 Egamiz demoqda: “Shunday kunlar keladiki, Men Isroil va Yahudo yurtlarini odamlarga va hayvonlarga to‘ldiraman. 28 Ilgarilari Men bu xalqni qo‘porib, halok qilgan bo‘lsam, ularni ag‘darib tashlab, yakson etgan bo‘lsam, boshlariga falokat keltirgan bo‘lsam, endi ularni qayta bunyod etib, mustahkam qilaman, — deb aytmoqda Egamiz. 29 — O‘shanda odamlar shunday deb aytmaydigan bo‘ladi:

«Otalari nordon uzum yeyishgan edi,
Bolalarining tishi qamashdi.»

30 Aksincha, har bir odam qilgan gunohi uchun o‘zi o‘lim jazosini oladi. Kim nordon uzum yegan bo‘lsa, o‘shaning tishi qamashadi.”

31 Egamiz demoqda: “Shunday kunlar keladiki, Men Isroil va Yahudo xalqlari bilan yangi ahd tuzaman. 32 Bu yangi ahd Men ularning ota–bobolari bilan tuzgan ahdga o‘xshamaydigan bo‘ladi. Men ota–bobolarini qo‘lidan yetaklab, Misrdan olib chiqqanimda, ular bilan ahd tuzgan edim. Men ularga sodiq xo‘jayin* edim, ammo ular o‘sha ahdimni buzishdi.” Egamizning kalomi shudir.

33 Egamiz shunday demoqda: “Men kelajakda Isroil xalqi bilan tuzadigan ahd shunday bo‘ladi: Men qonunimni odamlarning ongiga solib qo‘yaman, qonunimni ularning yuraklariga yozaman. Men ularning Xudosi, ular esa Mening xalqim bo‘ladilar. 34 Shundan keyin odamlar bir–biriga: «Egamizni tanib–biling», demaydigan bo‘lishadi. Chunki ularning hammasi — kattasidan tortib, kichigigacha Meni biladigan bo‘ladi. Men ularning ayblarini kechiraman, gunohlarini hech qachon esga olmayman.” Egamizning kalomi shudir.

35 Kunni yoritsin deya, Egamiz quyosh ato qildi.
Kechasi nur sochsin deya, oy va yulduzlarni yaratdi.
U dengizni koʻpirtirar,
Toʻlqinlarini oʻkirtirar,
Uning nomi Sarvari Olamdir.
U shunday demoqda:
36 “Agar tabiatdagi bu tartib buzilsa,
Isroil nasli ham xalq sifatida yoʻq boʻladi.”

37 Egamiz shunday demoqda:
“Osmonu falakni oʻlchab boʻlmaganday,
Zamin poydevorini* tekshirib boʻlmaganday,
Men ham Isroil naslini tark etolmayman,
Qilgan qilmishlari uchun ularni tashlab ketolmayman.”
Egamizning kalomi shudir.

38 Egamiz demoqda: “Shunday kunlar kelyaptiki, Quddus Mening sharafim uchun qayta tiklanadi. Butun shahar Xanonil minorasidan* tortib, to Burchak darvozasigacha qayta quriladi. 39 Shahar kengayadi, chegarasi gʻarbdagi Goriv tepaligigacha borib, Goʻax tomon buriladi. 40 Oʻliklar koʻmilgan, axlat tashlangan butun Xinnum soyligi* va Qidron soyligining sharqidagi Ot darvozasigacha choʻzilgan hamma dalalar Meniki boʻladi, ular muqaddas boʻladi. Quddus shahri endi hech qachon vayron qilinmaydi, xarobaga aylanmaydi.”

32–BOB

Yeremiyo dala sotib oladi

1 Yahudo shohi Zidqiyo hukmronligining oʻninchi yilida* Yeremiyoga Egamizning soʻzi ayon boʻldi. Oʻsha yili Bobil shohi Navuxadnazar* hukmronligining oʻn sakkizinchi yili boʻlib, 2 ayni vaqtda u lashkarlari bilan Quddusni qamal qilib turgan edi. Yeremiyo esa Yahudo shohi saroyidagi soqchilar hovlisiga qamab qoʻyilgan edi. 3 Shoh Zidqiyoning oʻzi Yeremiyoni oʻsha yerga qamatib, shunday degan edi: “Nega sen oʻzingcha bashorat qilib yuribsan?! Axir, sen shunday deb aytyapsan: «Egamiz aytmoqda: Men bu shaharni Bobil shohining qoʻliga topshiraman, shahar taslim boʻladi. 4 Yahudo shohi Zidqiyo ham Bobilliklarning* qoʻlidan qochib qutulolmaydi. U Bobil shohining qoʻliga topshiriladi. U shoh Navuxadnazarni oʻz koʻzi bilan koʻradi, Navuxadnazar u bilan yuzma–yuz gaplashadi. 5 Navuxadnazar Zidqiyoni Bobilga olib ketadi. Men Zidqiyoni jazolamagunimcha Zidqiyo oʻsha yerda qoladi, — deb aytmoqda Egamiz. — Agar Bobilliklarga qarshi jang qilsangizlar, magʻlub boʻlasizlar.»”

6 Yeremiyo shunday deb aytdi: “Egamiz menga Oʻz soʻzini ayon qilib dedi: 7 «Ey Yeremiyo, sening oldingga Shallum amakingning oʻgʻli Xanomil keladi. U senga: ‘Onotoʻtdagi dalamni sotib ol. Sen eng yaqin qarindoshim boʻlganing uchun dalamni sotib olish huquqiga egasan*’, deb aytadi.»
8 Keyin, xuddi Egamiz aytganidek, soqchilar hovlisiga amakivachcham Xanomil kirib

keldi. U menga shunday dedi: «Benyamin hududida joylashgan Onotoʻtdagi dalamni sotib olsang, degan edim. Sen yaqin qarindoshim boʻlganing uchun dalamni oʻzingga mulk qilib olish huquqiga egasan. Dalamni sotib ola qol.» Shunda menga haqiqatan ham Egamiz gapirganini bildim.

9 Men amakivachcham Xanomildan Onotoʻtdagi dalani sotib olib, unga 43 misqol* kumushni oʻlchab berdim. 10 Keyin vasiqaga qoʻl qoʻyib, uni muhrladim*, hammasini guvohlar oldida qildim, kumushni tarozida oʻlchab berdim. 11 Soʻng muddat va shartlari bayon qilingan vasiqaning muhrlangan nusxasini, shuningdek, muhrlanmagan ochiq nusxani 12 Boruxga berdim. Borux Neriyoning oʻgʻli, Maxsiyoning nevarasi edi. Soqchilar hovlisida oʻtirgan hamma yahudiylar, vasiqaga qoʻl qoʻygan guvohlar va amakivachcham Xanomil buning shohidi boʻldilar. 13 Men ularning oldida Boruxga shunday dedim: 14 «Isroil xalqining Xudosi — Sarvari Olam demoqda: bu vasiqaning ikkala nusxasini, muhrlangan va ochiq nusxalarini olib, xumchaga solib qoʻy, toki ular uzoq yillar davomida saqlanib qolsin. 15 Zero, Isroil xalqining Xudosi — Sarvari Olam demoqda: bu yurtda odamlar yana uylar, dalalar va uzumzorlar sotib oladigan boʻlishadi.»

Yeremiyoning ibodati

16 Men vasiqani Neriyo oʻgʻli Boruxga berganimdan soʻng, Egamizga ibodat qildim:

17 Yo Egam Rabbiy! Sen Oʻz qudrating va ajoyibotlaring bilan yeru osmonni
yaratding. Sening qoʻlingdan kelmaydigan narsa yoʻq. 18 Sen minglab avlodlarga*
Oʻzingning sodiq sevgingni koʻrsatasan, ammo otalarning gunohlari uchun
bolalarni jazolaysan. Ey buyuk va qudratli Xudo! Sarvari Olamdir Sening noming.
19 Sen dono rejalar tuzib, buyuk ishlar qilasan. Foniy bandalar qilayotgan barcha
ishlarni kuzatib turasan. Ularni qilmishiga yarasha jazolaysan, qilgan ishiga
yarasha taqdirlaysan. 20 Sen Misrda yodda qoladigan alomatu moʻjizalar
koʻrsatding. Hozirgi kunda ham Isroil va butun odamzod orasida Sening noming
nihoyatda mashhur.
21 Alomatu moʻjizalaring, Oʻz qudratingu ajoyibotlaring, buyuk bir dahshating
bilan Sen Oʻz xalqingni Misrdan olib chiqqan eding. 22 Ota–bobolariga vaʼda
qilgan, sut va asal oqib yotgan yurtni* ularga bergan eding. 23 Ular bu yurtga
kelib, uni mulk qilib oldilar. Ammo Senga boʻysunmadilar, qonunlaringga rioya
qilmadilar. Buyurgan amrlaringni bajarmadilar. Shu sababdan Sen bu
falokatlarning hammasini ularning boshiga solding.
24 Ana endi Bobilliklar Quddusga hujum qilyaptilar. Quddusni qoʻlga kiritish
uchun shahar devoriga qiyalatib tuproq uyyaptilar*. Qirgʻin, ocharchilik va oʻlat
dastidan shahar taslim boʻladi. Oʻzing koʻrib turganingdek, aytganlaringning bari
bajo boʻlyapti. 25 Ey Egam Rabbiy, shahar Bobilliklarga taslim boʻlayotgan
shunday bir paytda Sen menga: «Guvohlar oldida kumushga dala sotib ol»,
deding–a!”

26 Egamiz Yeremiyoga Oʻz soʻzini ayon qildi: 27 “Men Egangizman. Men barcha tirik jonning Xudosiman. Qoʻlimdan kelmaydigan ish yoʻq! 28 Shunday ekan, Men bu shaharni Bobilliklarga, Bobil shohi Navuxadnazarga taslim qilib beraman, — deb aytmoqda Egamiz. — Ular shaharni qoʻlga kiritadilar. 29 Sizlarga hujum qilib kelayotgan oʻsha Bobilliklar shaharga oʻt qoʻyadilar. Quddusdagi uylarni yondirib tashlaydilar! Axir,

Quddus aholisi uylarining tomlari ustida Baalga qurbonliklar kuydirib, boshqa xudolarga sharob nazrlarini keltirib, Meni g‘azablantirdi.”

30 Egamiz shunday demoqda: “Isroil va Yahudo xalqlari yoshligidan beri oldimda faqat qabihlik qilishadi. Qachon qarasa, Isroil xalqi o‘z ishlari bilan Meni g‘azablantirib yuradi. 31 Bu shahar bino bo‘lgandan buyon, to bugunga qadar, shahar aholisi Meni qattiq g‘azablantirib kelmoqda. Men ularni huzurimdan daf qilaman, 32 chunki Isroil va Yahudo xalqlari — shohlariyu a’yonlari, ruhoniylariyu payg‘ambarlari, Yahudo va Quddusda yashagan hamma odamlar qilgan yovuzliklari bilan jahlimni chiqardilar. 33 Ular Menga yuz burmay, orqa o‘girdilar. Men ularni to‘g‘ri yo‘lga solmoqchi bo‘lib astoydil harakat qilgandim, ammo ular Menga quloq solmadilar, o‘zlariga saboq olmadilar. 34 Mening nomim bilan atalgan uyga jirkanch butlarini o‘rnatib, uyimni harom qildilar. 35 Xinnum soyligida* Baalga sajdagohlar* qurdilar. U yerda o‘g‘il–qizlarini Mo‘laxga qurbonlik qilib, olovda kuydirdilar*. Men ularga bunday jirkanch ishni amr qilmaganman, bu hatto xayolimga ham kelmagan. Natijada bu qilmishlari tufayli Yahudo xalqi jazoga loyiq bo‘ldi.

Egamizning umidbaxsh va’dasi

36 Ey Yeremiyo, sen bu shahar haqida: «Quddus shahri qirg‘in, ocharchilik va o‘lat dastidan Bobil shohining qo‘liga topshiriladi», deb aytyapsan. Bu gaping to‘g‘ri. Ammo Men, Isroil xalqining Xudosi — Egangiz, aytamanki, 37 xalqimni qahr–g‘azab va qattiq jahl ustida turli yurtlarga tarqatib yuborganimdan keyin, ularni yig‘ib olaman. Ularni yana mana shu yerga olib kelaman. Ular bu yerda osoyishta umr kechiradilar. 38 Ular Mening xalqim bo‘ladi, Men esa ularning Xudosi bo‘laman. 39 Ular Mendan har doim qo‘rqsin deb, ularni yakdil qilaman, hammasini hayotning bir maqsadi tomon yo‘naltiraman. Shunda o‘zlariga ham, bolalariga ham yaxshi bo‘ladi. 40 Men ular bilan abadiy ahd tuzaman. Ularga doim yaxshilik qilishdan qochmayman. Mendan yuz o‘girib ketmasliklari uchun ularning yuraklariga Mendan qo‘rqish hissini solib qo‘yaman. 41 Men ularga yaxshilik qilganimdan xursand bo‘laman, ularni jonu dilim bilan bu yurtda albatta mustahkam o‘rnashtiraman.”

42 Egamiz shunday demoqda: “Men bu xalqning boshiga katta falokatni qanday yog‘dirgan bo‘lsam, va’da qilgan barcha ezguliklarimni ham ustilariga xuddi shunday yog‘diraman. 43 Odamlar bu yurt haqida: «Ha, yurtimiz Bobilliklarga taslim bo‘ldi, odamlar va hayvonlarsiz huvullab qoldi», deb aytishyapti. Ammo shunday kun keladiki, bu yurtdagi dalalar yana sotiladigan bo‘ladi. 44 Odamlar bu dalalarni kumushga sotib oladilar, guvohlar oldida vasiqalarga qo‘l qo‘yib, muhr bosadilar. Bunday hodisa Benyamin hududida, Quddus atrofida, Yahudo shaharlarida, qirlarda, g‘arbdagi qir etaklarida va Nagav cho‘lida sodir bo‘ladi. Axir, Men xalqimni yana farovonlikka erishtiraman*.” Egamizning kalomi shudir.

33–BOB

Egamizning ikkinchi umidbaxsh va’dasi

1 Yeremiyo soqchilar hovlisida qamoqda o‘tirganda, Egamiz unga ikkinchi marta O‘z so‘zini ayon qildi: 2 “Ey Yeremiyo, Men Egangman, olamni yaratgan, yerga shakl berib, uni o‘rnatgan Xudoyingman. 3 Menga iltijo qil, senga javob beraman. Sen hali bilmaydigan buyuk sirlarni senga aytaman. 4 Shunday ekan, Quddus ahliga ayt: «Isroil

xalqining Xudosi — Egamiz shunday demoqda: sizlar dushmanning qamal
inshootlaridan* va uning qilichidan saqlanmoqchi bo‘lib, shahringiz devorlarini
mustahkam qildingiz. Buning uchun uylaringizni, hatto Yahudo shohlarining saroylarini
buzdingizlar. 5 Sizlar Bobilliklar* bilan jang qilasizlar. Ular esa vayrona uylaringizni
jasadlarga to‘ldiradilar. Men qahr–g‘azabga to‘lib, xalqimni qiraman! Xalqimning
qabihliklari tufayli bu shahardan yuz o‘girdim. 6 Shunga qaramay, bu shaharga yana
shifo beraman, uni sog‘aytiraman. Aholisini sog‘–salomat qilib, cheksiz tinchlik va
osoyishtalikdan bahramand etaman. 7 Men Yahudo va Isroil xalqlarini yana farovonlikka
erishtiraman*, avvalgiday qayta bunyod etaman. 8 Menga qarshi qilgan barcha
gunohlaridan ularni poklayman, bosh ko‘tarib qilgan gunohlarini kechiraman. 9 Yer
yuzidagi hamma xalqlar oldida Quddus Menga shuhrat, quvonch va shon–sharaf
keltiradi. Quddusga qilgan yaxshiligimni, uning ravnaqini ko‘rgan barcha ellarni qo‘rquv
va titroq bosadi.»”

10 Egamiz shunday demoqda: “Sizlar, bu huvullagan shaharda na odam, na hayvon
bor, deb aytasizlar. Aytganingiz bejiz emas. Yahudo shaharlari bilan Quddus ko‘chalari
huvullab qolgan, u yerda na odam, na hayvon bor. Biroq u yerda siz yana bir bor
11 quvonchu shodlik sadolarini, kelin–kuyov ovozlarini eshitasiz. Odamlar Egasining
uyiga yana shukrona nazrlarini keltiradilar, shunday deb yana kuylaydilar:

> «Shukrona ayting Sarvari Olamga, U yaxshidir!
> Uning sodiq sevgisi abadiydir!»

Men bu yurtni ilgarigi farovonligiga erishtiraman.” Egamizning kalomi shudir.

12 Sarvari Olam shunday demoqda: “Odam va hayvonsiz huvullab qolgan bu joyda,
yurtning hamma shaharlarida yana yaylovlar bo‘ladi, cho‘ponlar u yerda qo‘ylarini
o‘tlatishadi. 13 Qirlardagi shaharlarda, g‘arbiy qir etaklaridagi, Nagav cho‘lidagi va
Benyamin hududidagi shaharlarda, Quddus atrofida, Yahudo shaharlarida cho‘ponlar
yana qo‘ylarini sanaydigan bo‘ladi.” Egamizning kalomi shudir.

14 Egamiz shunday demoqda: “Men Isroil* va Yahudo xalqlariga bergan ezgu
va’damni bajaraman. Va’damni bajaradigan kunlar yaqinlashib kelyapti. 15 O‘sha
kunlarda Men Dovud naslidan solih bir novdani* yetishtiraman. Yurtda u adolatu
to‘g‘rilik ila ish tutadi. 16 O‘sha kunlarda Yahudo xalqi bexatar yashaydi, Quddus aholisi
osoyishta hayot kechiradi. Quddus shahri «Egamiz najotkorimizdir» deb nom oladi.”

17 Egamiz shunday demoqda: “Dovudning nasli Isroil taxtida abadiy o‘tiradi. 18 Levi
avlodidan bo‘lgan ruhoniylar esa huzurimda qurbonliklar kuydirib, don nazrlarini
keltiradilar, ular abadulabad Menga qurbonliklar qiladilar.”

19 Egamizning so‘zi Yeremiyoga ayon bo‘ldi. 20 Egamiz shunday dedi: “Bordi–yu,
birontangiz tun va kun bilan tuzgan amrimni buzishga qodir bo‘lsangiz, ularning
tartibini o‘zgartira olsangiz, 21 shundagina Men ham Dovud va Menga xizmat qilayotgan
Levi avlodi bilan tuzgan ahdimni buzaman, Dovud sulolasini taxtdan tushiraman. 22 Men
qulim Dovud naslini va Menga xizmat qilayotgan Levi avlodini osmondagi yulduzlarday,
dengizdagi qumday son–sanoqsiz qilaman.”

23 Yeremiyoga Egamizning ushbu so‘zi ayon bo‘ldi: 24 “Bu odamlarning gapini
eshitdingmi? Ular, Egamiz O‘zi tanlagan ikkita xalqni — Isroil va Yahudoni rad etdi, deb
aytib yurishibdi. Bu odamlar xalqimdan shunchalik hazar qilishadiki, uni endi xalq deb

tan olishdan or qilishyapti.” 25 Egamiz shunday demoqda: “Men kun va tunga bergan
amrimni, osmonu falak uchun o‘rnatgan qonun–qoidalarimni hech qachon
o‘zgartirmayman. 26 Shu singari, Yoqub avlodini va qulim Dovud sulolasini rad
etmayman. Men doimo Dovud naslidan shoh tanlayman. Uni Ibrohim, Is’hoq va Yoqub
avlodining ustidan hukmron qilib qo‘yaman. Men xalqimni yana farovonlikka
erishtiraman, ularga rahm–shafqat ko‘rsataman.”

34–BOB

Zidqiyo uchun xabar

1 Bobil shohi Navuxadnazar* o‘z lashkari, qo‘li ostidagi barcha shohliklaru xalqlar
bilan birga Quddusga va uning yon–atrofidagi shaharlarga qarshi jang qilayotgan edi.
Shunda Egamiz O‘z so‘zini Yeremiyoga ayon qildi: 2 “Qani bo‘l, Yeremiyo, Yahudo shohi
Zidqiyo* huzuriga bor. Unga ayt: «Isroil xalqining Xudosi — Egamiz shunday demoqda:
Men bu shaharni Bobil shohiga taslim qilaman, u shaharga o‘t qo‘yadi. 3 Sen ham Bobil
shohining qo‘lidan qochib qutula olmaysan. Odamlar seni tutib oladilar. Bobil shohining
qo‘liga topshiradilar. Sen o‘z ko‘zing bilan Bobil shohini ko‘rasan, u sen bilan yuzma–yuz
gaplashadi. Keyin seni Bobilga jo‘natib yuboradi.
4 Biroq, ey Yahudo shohi Zidqiyo, Egamizning so‘zini eshit! Egamiz sen haqingda
shunday demoqda: sen qilichdan halok bo‘lmaysan. 5 Tinchgina olamdan ko‘z yumasan.
Odamlar ota–bobolaringni, sendan oldin o‘tgan shohlarni qanday dafn qilishgan bo‘lsa,
ularning sharafiga qanday gulxan yoqishgan bo‘lsa*, sening sharafingga ham shunday
gulxan yoqishadi. Yig‘i–sig‘i qilib: ‘Voy, xojam!’ deya marsiya aytishadi. Egamizning
kalomi shudir.»”
6 Yeremiyo payg‘ambar bularning hammasini Quddusda Yahudo shohi Zidqiyoga
aytdi. 7 Shu orada Bobil shohining lashkari Quddus, Laxish va Ozikah shaharlariga
hujum qilayotgan edi. Yahudoning mustahkam shaharlaridan o‘shalargina yovga
hanuzgacha taslim bo‘lmagan edi.

Xalq ibroniy qullarni ozod qilish ahdiga rioya qilmaydi

8 Shoh Zidqiyo Quddusdagi butun aholi bilan ahd qilib, ibroniy qullarni ozodlikka
chiqarishni e’lon qilgandan keyin, Yeremiyoga Egamizning so‘zi ayon bo‘ldi.
9 Zidqiyo qilgan ahdga ko‘ra, hamma ibroniy qullarga va cho‘rilarga ozodlik berilishi
lozim edi. Yahudiy birodarlarni qullikda tutish man etilgan edi. 10 A’yonlar bilan butun
xalq ahd shartlariga ko‘ndi. Ular o‘z qullari bilan cho‘rilarini ozod qilishga, ularni
bundan keyin qul qilib olmaslikka rozi bo‘lgan edilar. Barcha quldorlar ahdga rioya
qilgan holda, qullariga ozodlik berishdi. 11 Keyinchalik* esa o‘z fikrlaridan qaytib, ozod
qilgan qul va cho‘rilarni majburlab, o‘zlariga yana qul qilib olishdi.
12 Shunda Egamizning so‘zi Yeremiyoga ayon bo‘ldi. 13 Isroil xalqining Xudosi —
Egamiz shunday demoqda: “Men ota–bobolaringizni Misrdagi qullikdan olib
chiqqanimda, ular bilan ahd qilib, shunday degan edim*: 14 «O‘zini sizga sotib, olti yil
xizmat qilgan har bir ibroniy qulni ozod qilinglar.» Ammo ota–bobolaringiz
aytganlarimga e’tibor bermadilar, Menga quloq solmadilar. 15 Yaqinda esa sizlar tavba
qilgan edingizlar. Mening huzurimda — O‘zimning nomim bilan atalgan uyimda turib,
birodarlaringizni ozod qilishga ahd qilgan edingiz. Mening nazarimda bu ishingiz to‘g‘ri
edi. 16 Keyin esa sizlar fikringizdan qaytdingizlar. Meni badnom qildingizlar. O‘z

xohishlariga koʻra, ozod qilingan qulu choʻrilaringizni qaytarib oldingizlar, ularni qul boʻlishga majbur qildingizlar.”

17 Egamiz shunday demoqda: “Sizlar Menga itoatsizlik qilib, yoru doʻstlaringizni,
qoʻni–qoʻshnilaringizni qoʻyib yubormadingiz, shuning uchun Men sizlarni qoʻyib
yuboraman. Mana, urush, qahatchiligu oʻlatga yoʻlingiz ochiq! Ahvolingizni dunyodagi
barcha shohliklar koʻrib, dahshatga tushadi. 18 Ahdimni buzgan bu odamlarni Men
jazolayman. Ular huzurimda ahd tuzgan edilar, buzoqni ikki qismga boʻlib, ikki boʻlagi
orasidan oʻtgan edilar*. Ammo ahd shartlariga rioya qilmadilar. Shuning uchun Men
ularni boʻgʻizlangan buzoqning holiga tushiraman. 19 Buzoqning ikki boʻlagi orasidan
oʻtgan Yahudo a’yonlarini, Quddus ma’murlarini, saroy amaldorlarini, ruhoniylarini va
xalq ommasini jazolayman. 20 Ularda qasdi borlarga oʻzlarini topshiraman, dushman
qoʻliga beraman. Jasadlari qushlarga va yovvoyi hayvonlarga yem boʻladi. 21 Yahudo
shohi Zidqiyoni ham a’yonlari bilan birga dushman qoʻliga beraman, ularda qasdi
borlarga topshiraman. Vaqtinchalik chekingan Bobil shohining lashkariga* ularni taslim
qilaman. 22 Men buyruq berib, Bobilliklarni bu shaharga qaytarib olib kelaman. Ular
sizlarga hujum qiladilar. Shaharni qoʻlga olib, oʻt qoʻyadilar. Yahudo shaharlari vayron
boʻladi, u yerda hech kim yashamaydi.” Egamizning kalomi shudir.

35–BOB

Yeremiyo va Raxav nasli

1 Yoʻshiyo oʻgʻli shoh Yohayiqim* hukmronlik qilgan davrda Egamiz Oʻz soʻzini
Yeremiyoga ayon qildi: 2 “Qani boʻla qol, Yeremiyo, Raxav xonadoni huzuriga borib, u
yerdagi odamlar bilan gaplash. Soʻng uyimdagi yon xonalarning biriga ularni taklif
qilgin–da, sharobdan quyib ber.” 3 Men borib, Xavazinyoning nevarasi — Yeremiyo oʻgʻli
Yazaniyoni aka–ukalari bilan birga, hamma oʻgʻillarini va butun Raxav xonadonini
chaqirib, 4 Egamizning uyiga boshlab keldim. Ularni Yixdaliyo oʻgʻli Xanon
paygʻambarning oʻgʻillariga qarashli xonaga olib kirdim. Bu xonaning yonida Ma’bad
a’yonlarining xonasi, tagida esa Shallum oʻgʻli Masiyoning xonasi joylashgan edi. Masiyo
Ma’bad darvozaboni boʻlib xizmat qilar edi. 5 Men dasturxonga idishlarni toʻldirib
sharob tortdim, piyolalar qoʻydim. Soʻng Raxav nasliga:

— Marhamat qilib, sharobdan ichinglar, — deb taklif qildim.

6 Ular shunday dedilar:

— Biz sharob ichmaymiz. Bobokalonimiz Raxav oʻgʻli Yohunadav* bizga shunday
amr qilgan: “Zinhor sharob ichmanglar, bolalaringiz ham ichmasin. 7 Uylar qurmanglar,
ekin ekmanglar, uzumzorlar barpo qilmanglar, ularni oʻzingizga mulk qilib olmanglar.
Koʻchib borgan joyingizda uzoq vaqt yashay olishingiz uchun chodirlarda kun
kechiringlar.” 8 Shuning uchun biz bobokalonimizning amriga boʻysunib, hech qachon
sharob ichmaymiz, xotinlarimiz ham, oʻgʻil–qizlarimiz ham sharob ichmaydilar. 9 Oʻzimiz
uchun uylar qurmaymiz, ekin ekmaymiz, bizda na uzumzor bor, na dala bor. 10 Biz
bobokalonimiz Yohunadavning amriga itoat qilib, bir umr chodirlarda yashab keldik.
11 Ammo Bobil shohi Navuxadnazar* bu yurtga bostirib kelgandan soʻng, Bobil* va Oram
lashkarlaridan qoʻrqib, Quddusga kelishga qaror qilgan edik. Shu sababdan hozir biz
Quddusda yashab yuribmiz.

12 Shundan soʻng Yeremiyoga Egamizning quyidagi soʻzi ayon boʻldi. 13 Isroil

xalqining Xudosi — Sarvari Olam unga shunday dedi: “Qani boʻl, Yeremiyo, Yahudo xalqi va Quddus aholisining huzuriga borib, shunday deb taʼna qil: sizlar oʻzi saboq olasizlarmi?! Menga itoat qilishni oʻrganasizlarmi oʻzi?! 14 Ana, koʻrib qoʻying, Raxav nasli oʻz bobokalonining amriga itoat qilgani uchun bugunga qadar sharobni ogʻziga ham olmay yuribdi. Men esa sizlarga qayta–qayta gapirgan boʻlsam ham, sizlar Menga itoat qilmadingizlar. 15 Men paygʻambar qullarimni oldingizga qayta–qayta joʻnatdim. Ular orqali sizlarni shunday deb ogohlantirgan edim: «Sizlarga va ota–bobolaringizga Men bergan bu yurtda yashay olishingiz uchun yomon yoʻlingizdan qaytinglar. Turmush tarzingizni oʻzgartiringlar. Boshqa xudolarga ergashmanglar. Ularga xizmat qilmanglar.» Ammo sizlar quloq solmadingizlar, gapimga kirmadingizlar. 16 Yohunadavning avlodi oʻz bobokaloni buyurib ketgan amrni ijro etdi, bu xalq esa Menga itoat qilmadi.”

17 Shuning uchun Isroil xalqining Xudosi, Parvardigori Olam — Egamiz shunday demoqda: “Men Yahudo va Quddus aholisiga gapirgan edim, ammo ular gaplarimga quloq solmadilar, ularni chaqirgan edim, ammo Menga javob bermadilar. Shuning uchun Oʻzim aytgan barcha balo–qazolarni ularning boshlariga yogʻdiraman.”

18 Raxav xonadoniga esa Yeremiyo shunday dedi: “Isroil xalqining Xudosi — Sarvari Olam demoqda: «Sizlar bobokaloningiz Yohunadavning amriga itoat etdingiz, uning nasihatlarini rad etmay, aytganlarining hammasini bajardingiz, shuning uchun 19 Raxav oʻgʻli Yohunadav avlodidan boʻlgan kishi huzurimda abadulabad xizmat qiladigan boʻladi.» Isroil xalqining Xudosi — Sarvari Olamning kalomi shudir.”

36–BOB

Borux oʻrama qogʻozga yozilgan soʻzlarni Maʼbadda oʻqiydi

1 Yahudo shohi Yoʻshiyo oʻgʻli Yohayiqim hukmronligining toʻrtinchi yilida* Yeremiyoga Egamizning shu soʻzi ayon boʻldi: 2 “Oʻrama qogʻoz* ol. Isroil, Yahudo va barcha shohliklarga qarshi Men aytgan soʻzlarni yozib qoʻy. Senga ilk bor Yoʻshiyo davrida* ayon qilgan soʻzimdan tortib, to bugunga qadar aytgan barcha gaplarimni yoz. 3 Balki Yahudo xalqi Men boshlariga keltirmoqchi boʻlgan falokatlar haqida eshitib, yovuz yoʻllaridan qaytar. Shunda Men ularning aybu gunohlarini kechiraman.”

4 Yeremiyo Neriyo oʻgʻli Boruxni chaqirib, Egamizning aytgan hamma soʻzlarini yozdirdi. 5 Soʻng Yeremiyo Boruxga tayinlab dedi: “Egamizning uyiga kirish menga man etilgan. 6 Shuning uchun roʻza kuni sen oʻzing u yerga borasan. U yerdagi odamlarga men senga yozdirgan Egamizning soʻzlarini oʻrama qogʻozdan oʻqib berasan. Oʻsha kuni Yahudoning turli shaharlaridan kelgan xaloyiq Egamizning uyida boʻladi, ular ham oʻqiganingni eshitib olsin. 7 Balki ular Egamizga yolvorib, yovuz yoʻllaridan qaytishar. Axir, Egamiz qahru gʻazabini ularga sochishini eʼlon qildi!” 8 Neriyo oʻgʻli Borux Yeremiyoning aytganlarini toʻla–toʻkis bajardi. U Egamizning uyiga bordi, oʻrama qogʻozga bitilgan Egamizning soʻzlarini oʻqidi.

9 Bu voqea Yahudo shohi Yoʻshiyo oʻgʻli Yohayiqim hukmronligining beshinchi yili toʻqqizinchi oyida* sodir boʻldi. Quddus aholisi bilan Yahudo shaharlaridan kelgan butun xalq Egamizga bagʻishlab roʻza tutgan edi. 10 Shunda Borux Egamiz uyining Yangi darvozasi yonidagi yuqori hovlida joylashgan Shofon oʻgʻli kotib Gamariyoning xonasiga kirdi. U yerdan turib, oʻrama qogʻozga bitilgan Yeremiyoning soʻzlarini butun xalqqa ovoz chiqarib oʻqib berdi.

Borux o‘rama qog‘ozni a’yonlarga o‘qib beradi

11 Gamariyo o‘g‘li Mixiyo o‘rama qog‘ozga bitilgan Egamizning so‘zlarini eshitgach,
12 darhol shoh saroyidagi kotibning xonasiga jo‘nadi. Barcha a’yonlar o‘sha yerda
jamuljam bo‘lib o‘tirgan ekan: ular — kotib Elishama, Shamayo o‘g‘li Daloyo, Axbor o‘g‘li
Elnatan, Shofon o‘g‘li Gamariyo, Xanoniyo o‘g‘li Zidqiyo va boshqa a’yonlar edilar.
13 Borux o‘rama qog‘ozdan xalqqa o‘qib bergan barcha so‘zlarni Mixiyo ularga aytib
berdi. 14 A’yonlar Kushi o‘g‘li Shalamiyo avlodidan bo‘lgan Nataniyo o‘g‘li Yohudini
Boruxning oldiga jo‘natib, shunday gapni aytib yubordilar: “Xalqqa o‘qib bergan o‘rama
qog‘ozni olib, huzurimizga kelgin.” Neriyo o‘g‘li Borux o‘rama qog‘ozni olib a’yonlarning
oldiga bordi. 15 A’yonlar Boruxga:

— Qani, o‘tir, bizga ham o‘rama qog‘ozdagi so‘zlarni o‘qib ber, — dedilar. Borux
o‘qidi. 16 A’yonlar eshitgan so‘zlaridan vahimaga tushib, bir–birlariga qarab qoldilar.
So‘ng Boruxga:

— Bu haqda shohni xabardor qilishimiz zarur, — dedilar. 17 Ular Boruxdan
so‘radilar:

— Bularni qayerdan olib yozding? Bu so‘zlarni senga aytgan, mabodo, Yeremiyo
emasmi?

18 — Ha, Yeremiyoning o‘zi aytib turdi, men esa uning aytganlarini siyoh bilan
o‘rama qog‘ozga yozdim, — deb javob berdi Borux.

19 — Yeremiyo bilan borib, biron joyga yashirinib olinglar, hech kim bu haqda
bilmasin, — deb tayinlashdi a’yonlar.

Shoh o‘rama qog‘ozni yoqib yuboradi

20 A’yonlar o‘rama qog‘ozni kotib Elishamaning xonasida qoldirdilar, o‘zlari esa shoh
huzuriga borib, hamma gapni yetkazdilar. 21 Shoh o‘rama qog‘ozni olib kelish uchun
Yohudini jo‘natdi. Yohudi kotib Elishama xonasidan o‘rama qog‘ozni olib kelib, uni
shohga va shoh huzuridagi a’yonlarga o‘qib berdi.

22 Kech kuz*. Shoh qishki saroyida o‘tirar, yonidagi manqalda o‘t yonib turar edi.
23 Yohudi o‘rama qog‘ozdan uch–to‘rt ustunni o‘qib bo‘lishi bilanoq, shoh Yohayiqim
kotibning pichoqchasi bilan o‘ramning o‘sha qismini qirqib, manqaldagi olovga
tashlayverdi. U o‘rama qog‘ozning hammasini olovda yondirib bo‘lguncha shunday
qilaverdi. 24 O‘rama qog‘ozdagi so‘zlarni eshitgan shoh bilan xizmatkorlar qo‘rquvga
tushmadilar, qayg‘udan kiyimlarini yirtmadilar*. 25 Elnatan, Daloyo va Gamariyo shohga
yolvorib, o‘rama qog‘ozni yondirmang, deb iltimos qilgan bo‘lsalar ham, shoh ularga
quloq solmadi. 26 U shahzoda Yaraxmalga, Ozriyol o‘g‘li Sarayoga va Abdal o‘g‘li
Shalamiyoga, Yeremiyo payg‘ambarni va kotib Boruxni tutib kelinglar, deb buyurdi.
Egamiz esa Yeremiyo bilan Boruxni yashirgan edi.

Yeremiyo Xudoning so‘zlarini boshqatdan yozdiradi

27 Yeremiyo Boruxga yozdirgan o‘rama qog‘ozni shoh yoqib yuborgandan keyin,
Yeremiyoga Egamizning quyidagi so‘zi ayon bo‘ldi: 28 “Yeremiyo, boshqa bir o‘rama
qog‘oz ol. Unga Yahudo shohi Yohayiqim yondirib yuborgan avvalgi o‘rama qog‘ozdagi
hamma so‘zlarni yoz. 29 Yahudo shohi Yohayiqimga esa shunday deb ayt: «Egamiz
demoqda: o‘rama qog‘ozda: ‘Bobil shohi albatta keladi, yurtni vayron qiladi, odamlaru
hayvonlarni qirib tashlaydi’, deb yozilgani uchun sen Yeremiyoga do‘q qilibsan, o‘rama
qog‘ozni yoqib yuborishga jur’at etibsan. 30 Shuning uchun, ey Yahudo shohi Yohayiqim,

Egamiz sen haqingda shunday demoqda: sening avlodingdan birontasi ham Dovud taxtida o‘tirmaydi*. Sening jasadingni odamlar uloqtirib yuborishadi, o‘liging kunning jaziramasida, tunning sovug‘ida qoladi. 31 Men seni, sening avlodingu a’yonlaringni qilgan gunohlaringiz uchun jazolayman. O‘zim aytgan barcha falokatlarni sizlarning boshingizga, Quddus aholisi va Yahudo xalqining boshiga yog‘diraman, chunki sizlar Menga quloq solmadingizlar.»”

32 Yeremiyo boshqa bir o‘rama qog‘oz olib, Neriyo o‘g‘li kotib Boruxga berdi. So‘ng Yahudo shohi Yohayiqim yondirib yuborgan avvalgi o‘rama qog‘ozdagi barcha so‘zlarni unga yozdirdi. Ammo bu safar o‘ramga shu mazmundagi ko‘p xabarlar qo‘shilgan edi.

37–BOB

Shoh Zidqiyo Yeremiyodan maslahat so‘raydi

1 Bobil shohi Navuxadnazar* Yo‘shiyo o‘g‘li Zidqiyoni* Yohayiqim o‘g‘li Yohayixinning* o‘rniga Yahudo shohi qilib tayinladi. 2 Ammo na shoh, na a’yonlari, na yurtdagi xalq Egamizning Yeremiyo orqali aytgan so‘zlariga quloq solar edilar.

3 Shoh Zidqiyo Shalamiyo o‘g‘li Yohuxal bilan Masiyo o‘g‘li ruhoniy Zafaniyoni Yeremiyo payg‘ambarning oldiga yuborar ekan, shu gaplarni ayttirib yubordi: “Iltimos, biz uchun Egamiz Xudoga iltijo qil.” 4 Yeremiyo shu vaqtgacha qamoqqa olinmaganligi uchun xalq orasida bemalol yurar edi. 5 Shu orada fir’avn lashkari Misrdan chiqdi*. Quddusni qamal qilib turgan Bobilliklar* bu xabarni eshitishgach, Quddusdan chekindilar.

6 Shunda Egamiz so‘zini Yeremiyoga ayon qildi. 7 Isroil xalqining Xudosi — Egamiz shunday demoqda: “Xudoning so‘zini bilmoqchi bo‘lib, ikkovingizni oldimga yuborgan Yahudo shohiga shunday deb ayting: sizlarga yordam bermoqchi bo‘lib kelayotgan fir’avn lashkari o‘z yurti — Misrga qaytib ketadi. 8 Bobilliklar esa Quddusga qaytib kelib, shaharga qarshi jang qiladilar. Ular shaharni qo‘lga olib, yondirib yuboradilar.”

9 Egamiz yana shunday demoqda: “Bobilliklar endi qaytib kelishmaydi, deb o‘zlaringizni aldamanglar, chunki ular albatta qaytib kelishadi. 10 Bordi–yu, sizlar Bobilliklarning butun lashkarini mag‘lub qilganingizda ham, ularning chodirlarida qolgan yaradorlar kelib, shahringizga o‘t qo‘ygan bo‘lardi.”

Yeremiyo zindonga tashlanadi

11 Fir’avn lashkari yaqinlashib kelayotgani uchun Bobilliklar Quddusdan chekindilar. 12 Shunda Yeremiyo Benyamin hududidagi* xalq orasida o‘ziga tegishli yer ulushini ko‘rish uchun Quddus shahridan ketmoqchi bo‘ldi. 13 U Quddusning Benyamin darvozasiga yetib kelgach, soqchilar boshlig‘i Yiriyo:

— Sen Bobilliklarning oldiga qochib ketmoqchisan, — deb uni qamoqqa oldi. Yiriyo Shalamiyoning o‘g‘li, Xanoniyoning nevarasi edi.

14 — Yolg‘on! — dedi Yeremiyo, — men Bobilliklarning oldiga qochmoqchi emasman.

Ammo Yiriyo Yeremiyoning gapiga quloq solishni istamadi, uni hibsga olib, a’yonlarning oldiga olib bordi. 15 A’yonlar Yeremiyodan g‘azablanib, uni kaltaklashdi. So‘ng kotib Yo‘natanning zindonga aylantirilgan uyiga qamab qo‘yishdi. 16 Shunday qilib, Yeremiyo uzoq vaqt zindon hujralaridan birida yotdi.

17 Oradan vaqt o‘tdi. Shoh Zidqiyo Yeremiyoni saroyiga chaqirtirib:

— Egamizdan biron xabar bormi? — deb yashirincha so‘radi.

— Ha, bor, — dedi Yeremiyo. — Siz Bobil shohining qo‘liga tushasiz. 18 Nega ular meni zindonga tashlashdi? Men a’yonlaringizga va bu xalqqa qarshi nima gunoh qilibman?! — dedi yana u. 19 — “Bobil shohi sizga hujum qilmaydi, yurtimizga u tajovuz qilmaydi”, deb bashorat qilgan payg‘ambarlaringiz qani?! 20 Yolvoraman, olampanohim, iltijoimni rad etmang, meni kotib Yo‘natanning uyiga qaytarib yubormang. U yerda adoyi tamom bo‘laman.

21 Shoh Zidqiyo, Yeremiyoni soqchilar hovlisiga qamab qo‘yinglar, shaharda non qolmaguncha, har kuni unga novvoy rastasidan bittadan non olib beringlar, deb buyurdi. Shunday qilib, Yeremiyo soqchilar hovlisida qoldi.

38–BOB

Yeremiyoni sardobaga tashlashadi

1 Matton o‘g‘li Shafatiyo, Pashxur o‘g‘li Gadaliyo, Shalamiyo o‘g‘li Yohuxal* va Malkiyo o‘g‘li Peshxur Yeremiyoning xalqqa aytgan shu so‘zlarini eshitgan edilar:
2 “Egamiz demoqda: «Shaharda qolganlar qilichdan, qahatchilik va o‘latdan nobud bo‘ladilar. Bobilliklarning* oldiga chiqqanlar esa tirik qoladilar. Bu odamlar hech bo‘lmaganda o‘z jonlarini saqlab qoladilar. 3 Bobil shohining lashkari albatta bu shaharni taslim qilib, qo‘lga kiritadi.» Egamizning kalomi shudir.”

4 A’yonlar shohga arz qilib:

— Bu odamni yo‘q qilish kerak! — dedilar, — chunki u o‘zining bema’ni gaplari bilan shaharda qolgan jangchilaru odamlarning ruhini tushirmoqda. U xalqimizning foydasini emas, zararini ko‘zlamoqda.

5 — Juda soz, — dedi shoh, — u bilan xohlaganingizni qiling. Men sizlarga monelik qila olmayman.

6 A’yonlar Yeremiyoni ushlab, arqonlarga bog‘lab sardobaga tushirdilar. Soqchilar hovlisidagi bu suvsiz sardoba shahzoda Malkiyoga tegishli bo‘lib, sardobada balchiqdan boshqa hech narsa yo‘q edi. Yeremiyo balchiqqa botib qoldi.

7 Yeremiyo sardobaga tashlangani haqida shoh saroyining amaldori Habashistonlik* Obidmalek xabardor bo‘ldi. Shoh o‘sha paytda Benyamin darvozasidagi mahkamada* edi. 8 Obidmalek saroydan chiqdi–da, shohning oldiga borib dedi:

9 — Shoh hazratlari, Yeremiyo payg‘ambarni sardobaga tashlagan odamlar qabihlik qilishibdi. Shaharda non qolmagan bo‘lsa, Yeremiyo u yerda ochlikdan o‘ladi–ku.

10 Shoh Habashistonlik Obidmalekka shunday amr qildi:

— Bu yerdan o‘ttizta odamni olgin–da, borib Yeremiyoni sardobadan chiqarib ol. Tag‘in u yerda o‘lib qolmasin.

11 Obidmalek yoniga odamlarni olib, saroy xazinasining ostki qismida joylashgan xonaga kirdi. U yerdan eski–tuski kiyimlar va latta–putta topib, ularni arqonlarga bog‘lab, Yeremiyoga tushirdi. 12 So‘ng Yeremiyoga dedi: “Arqon tanangizni qiyib yubormasligi uchun lattalarni arqon bilan qo‘ltig‘ingiz orasiga qo‘ying.” Yeremiyo aytilganday qildi. 13 Odamlar Yeremiyoni arqonlar yordamida sardobadan chiqarib oldilar. Yeremiyo soqchilar hovlisida qoldi.

Zidqiyo Yeremiyoga maslahat soladi

14 Shoh Zidqiyo* Yeremiyo payg‘ambarni chaqirtirdi, uni Egamiz Ma’badining

uchinchi kirishida* kutib oldi.

— Sendan bir narsani so‘ramoqchiman, — dedi shoh. — Mendan hech narsani yashira ko‘rma.

15 — Sizga haqiqatni aytsam, meni o‘ldirishingiz aniq, — dedi Yeremiyo. — Sizga maslahat berganim bilan, baribir quloq solmaysiz.

16 Shoh Zidqiyo Yeremiyoga maxfiy ravishda ont ichib dedi:

— Bizga hayot baxshida etgan Egamiz shohid, men seni o‘ldirmayman. Joningga qasd qilayotgan odamlarning qo‘liga ham seni topshirmayman.

17 Shundan keyin Yeremiyo Zidqiyoga dedi:

— Isroil xalqining Xudosi, Parvardigori Olam — Egamiz demoqda: “Agar siz Bobil shohining a’yonlariga taslim bo‘lsangiz, o‘z joningizni saqlab qolasiz, bu shahar ham olovga yem bo‘lmaydi. Siz va butun xonadoningiz tirik qolasizlar. 18 Bordi–yu, Bobil shohining a’yonlariga taslim bo‘lmasangiz, Bobilliklar bu shaharni yengib, unga o‘t qo‘yadilar, o‘zingiz ham ularning qo‘lidan qochib qutulolmaysiz.”

19 — Men Bobilliklar tomonga qochib o‘tgan yahudiylardan qo‘rqaman, — dedi shoh. — Bobilliklar meni ularning qo‘liga topshirishsa, ular meni xo‘rlashadi.

20 — Topshirishmaydi, — dedi Yeremiyo. — Aytganlarimni qilib, Egamizning so‘ziga itoat qilsangiz, hammasi yaxshi bo‘ladi, joningizni saqlab qolasiz. 21 Bordi–yu, taslim bo‘lishdan bosh tortsangiz, Egamiz menga vahiy orqali ayon qilganlari bajo bo‘ladi:
22 saroyingizda qolgan hamma ayollar Bobil shohining a’yonlari oldiga chiqariladi. O‘sha ayollar sizga shunday deyishadi:

“Ishongan do‘stlaringiz
Sizni aldab, yengib ketishdi.
Oyog‘ingiz loyga botganda,
Ishongan do‘stlaringiz sizni tashlab ketishdi.”

23 Sizning xotinu bola–chaqalaringiz Bobilliklarning oldiga chiqariladi. Siz o‘zingiz ham Bobilliklarning qo‘lidan qochib qutula olmaysiz. Bobil shohi sizni qo‘lga tushirib, shaharni yondirib yuboradi.

24 — Suhbatimiz haqida hech kimga og‘iz ochma, aks holda, o‘lasan, — dedi Zidqiyo Yeremiyoga. 25 — Bordi–yu, a’yonlar sen bilan gaplashganimni bilib qolib, senga: “Shoh bilan nimalar haqida gaplashding? Bizdan biron narsani yashirmay ayt, bo‘lmasa o‘lasan”, deb aytishsa, 26 sen ularga: “Meni Yo‘natanning uyiga qaytarib yubormang, shohim, aks holda, u yerda adoyi tamom bo‘laman, deb iltijo qildim”, deya javob ber.

27 A’yonlar Yeremiyoning oldiga kelib, uni so‘roqqa tutishdi. Yeremiyo shoh buyurgan gaplarni aytib, javob berdi. Shundan keyin a’yonlar unga boshqa savol bermadilar, chunki shoh bilan Yeremiyo orasida bo‘lgan suhbatni hech kim eshitmagan edi. 28 Yeremiyo Quddus qulagan kunga qadar soqchilar hovlisida qoldi*.

39–BOB

Quddus qulaydi

1 Yahudo shohi Zidqiyo hukmronligining to‘qqizinchi yili o‘ninchi oyida* Bobil shohi Navuxadnazar* o‘zining jamiki lashkari bilan Quddusga kelib, shaharni qamal qildi.

2 Zidqiyo hukmronligining o‘n birinchi yili to‘rtinchi oyining* to‘qqizinchi kunida
Bobilliklar Quddus devorini yorib, shaharga kirdilar. 3 Shahar qo‘lga olingach, Bobil
shohining hamma a’yonlari shaharning O‘rta darvozasidagi mahkamalarda
qo‘mondonlik qarorgohini joylashtirdilar*. A’yonlarning orasida Nargal–Sharazar,
Samgarnavu, bosh maslahatchi Sarsahim* va amaldor Nargal–Sharazar bor edilar.
4 Yahudo shohi Zidqiyo va uning jamiki lashkari ularni ko‘rdilar–u, qochdilar. Ular yarim
kechasi shohning bog‘i orqali o‘tib, ikki devor orasidagi darvozadan chiqdilar–da, Iordan
vodiysiga* qarab ketdilar. 5 Ammo Bobil* sipohlari ularning orqasidan quvib, Yerixo
tekisligida Zidqiyoga yetib oldilar. Ular Zidqiyoni qo‘lga olib, Xomat yurtidagi Rivlo
shahriga* — Bobil shohi Navuxadnazarning huzuriga olib borishdi. Shoh Navuxadnazar
Zidqiyoni hukm qildi, 6 Rivloda Zidqiyoning o‘g‘illarini ko‘zi oldida o‘ldirdi, so‘ng hamma
Yahudo a’yonlarini qatl qildi. 7 Zidqiyoning esa ko‘zlarini o‘yib, Bobilga olib ketish uchun
kishanladi.

8 Bobilliklar* shoh saroyiga va odamlarning uylariga o‘t qo‘yib, Quddus devorlarini
yiqitdilar. 9 Qo‘riqchilar sardori Nabizaradon shaharda qolgan butun xalqni, Bobil shohi
tomonga o‘tgan qochoqlarni Bobilga asir qilib olib ketdi. 10 U Yahudo yurtida hech
vaqosi bo‘lmagan qashshoq odamlarnigina qoldirdi. O‘sha odamlarga dala va
uzumzorlarni berdi.

Yeremiyo ozod bo‘ladi

11 Shoh Navuxadnazar qo‘riqchilar sardori Nabizaradon orqali Yeremiyoga oid
quyidagi amrni berdi: 12 “Yeremiyoni qaramog‘ingizga olib, unga yaxshi qaranglar. Aslo
zarar yetkazmanglar, sizlardan nima so‘rasa bajaringlar.” 13 Qo‘riqchilar sardori
Nabizaradon, bosh nazoratchi Navushazbon, shoh maslahatchisi Nargal–Sharazar va
Bobil shohining hamma bosh amaldorlari odam yuborib, unga: 14 “Yeremiyoni
qo‘riqchilar hovlisidan olib kel”, deb buyurdilar. Uni eson–omon uyiga eltib qo‘yish
uchun Gadaliyoga topshirdilar. Gadaliyo Oxixamning o‘g‘li, Shofoning nevarasi edi.
Shunday qilib, Yeremiyo o‘z xalqining orasida qoldi.

Obidmalek

15 Yeremiyo soqchilar hovlisida qamoqda o‘tirganda, unga Egamizning so‘zi ayon
bo‘lgan edi: 16 “Habashistonlik* Obidmalekning* oldiga borib, shunday deb ayt: «Isroil
xalqining Xudosi — Sarvari Olam aytmoqda: Men aytgan so‘zlarimni bajo qilaman. Bu
shaharga yaxshilik emas, yomonlik keltiraman. Sen o‘zing buning guvohi bo‘lasan.
17 Lekin o‘sha kuni Men seni qutqarib qolaman, — deb aytmoqda Egamiz. — O‘zing
qo‘rqadigan odamlarning qo‘liga seni bermayman. 18 Seni, albatta, qutqaraman, jangda
halok bo‘lmaysan. Menga umid bog‘laganing uchun joning omon bo‘ladi, — deb
aytmoqda Egamiz.»”

40–BOB

Yeremiyo Gadaliyo bilan qoladi

1 Qo‘riqchilar sardori Nabizaradon Yeremiyoni Bobilga olib ketilayotgan Quddus va
Yahudo asirlari orasidan zanjirband holda topib olib, uni Rama shahrida* ozod qildi.
Shundan so‘ng Yeremiyoga Egamizning so‘zi ayon bo‘ldi. 2 Qo‘riqchilar sardori
Nabizaradon Yeremiyoni yoniga chaqirib shunday dedi: “Egangiz Xudo, bu yurtga

falokat keltiraman, deb aytgan edi. 3 Mana, hozirgi kunda Egangiz aytganini qilib,
yurtingizga falokat keltirdi, chunki sizlar Egangizga qarshi gunoh qildingizlar, Uning
aytganini qilmadingizlar. Shu sababdan bunday kulfat boshingizga tushdi. 4 Hozir men
qo‘lingdagi kishanlarni yechaman, seni ozod qilaman. Agar men bilan Bobilga
bormoqchi bo‘lsang, marhamat, senga yaxshi qarayman. Bordi–yu, Bobilga borishni
istamasang, ixtiyoring o‘zingda. Mana, butun yurt sening ro‘parangda turibdi, xohlagan
yeringga boraver. 5 Bu yurtda qoladigan bo‘lsang*, Oxixam o‘g‘li Gadaliyoning oldiga bor.
Bobil shohi Gadaliyoni Yahudo shaharlariga hokim qilib tayinladi. Gadaliyo Shofon
degan odamning nevarasidir. Sen uning yonida qolib, xalqing orasida yashashing
mumkin yoki xohlagan joyingga borishing mumkin.” Qo‘riqchilar sardori Yeremiyoga
yegulik bilan sovg‘a berib, uni ozod qildi. 6 Yeremiyo Mispax shahriga* — Oxixam o‘g‘li
Gadaliyoning oldiga borib, yurtda qolgan odamlar orasida o‘rnashdi.

Yahudo hokimi Gadaliyo

7 Ba’zi yahudiy lashkarboshilari va jangchilar taslim bo‘lmagan edilar. Oxixam o‘g‘li
Gadaliyoni Bobil shohi yurtga hokim qilib tayinlaganini, yurtda qolgan eng qashshoq
erkak, ayollar va bolalarni Gadaliyoning ixtiyoriga topshirganini ular eshitdilar. 8 So‘ng
Mispaxga kelib, Gadaliyoga uchrashdilar. Kelganlar — Nataniyo o‘g‘li Ismoil, Kariyox
o‘g‘li Yo‘xanon, Tanxumat o‘g‘li Sarayo, Natufolik Efayning o‘g‘illari, Maxolik Yazaniyo*
va ularning odamlari edi. 9 Gadaliyo kelganlarga shunday deb ont ichdi: “Bobilliklarga*
tobe bo‘lishdan qo‘rqmanglar. Yurtda o‘rnashib, Bobil shohiga xizmat qilaveringlar,
shunda hammasi yaxshi bo‘ladi. 10 Men esa Mispaxda qolaman. Keladigan
Bobilliklarning oldida vakilingiz bo‘laman. Sizlar o‘rnashib olgan shaharlaringizda
yashayverasizlar. Mevalarni yig‘ishtirib olinglar, sharob va zaytun moyini tayyorlab,
g‘amlab qo‘yinglar.”

11 Bobil shohi ba’zi odamlarga Yahudo yurtida qolishga ijozat berganini va
Gadaliyoni hokim qilib tayinlaganini Mo‘ab, Ommon, Edom va boshqa yurtlarda
yashayotgan yahudiylar ham eshitishdi. 12 Shunda ular surgun qilingan hamma
joylardan Yahudo yurtiga — Mispaxdagi Gadaliyoning oldiga qaytib kelishdi. U yerdan
bir talay meva yig‘ishtirib, ko‘p sharob tayyorlashdi.

Gadaliyoni o‘ldirib ketishadi

13 Bir kuni Kariyox o‘g‘li Yo‘xanon va qirlardagi lashkarboshilar Mispaxga
Gadaliyoning oldiga kelib so‘radilar:

14 — Ommon shohi Baalis sizni o‘ldirtirish uchun Nataniyo o‘g‘li Ismoilni
yuborganidan xabaringiz bormi?

Ammo Gadaliyo ularga ishonmadi. 15 Shunda Yo‘xanon hech kimga bildirmay
Gadaliyoga dedi:

— Ijozat bering, borib Ismoilni o‘ldiray. Bu haqda hech kim bilmaydi. Nima uchun u
sizni o‘ldirishiga yo‘l qo‘yishimiz kerak? Bordi–yu, Ismoil niyatiga yetsa, atrofingizga
yig‘ilgan barcha yahudiylar tarqalib ketadilar, Yahudoda qolgan odamlarning boshi esa
baloga qoladi.

16 Ammo Gadaliyo:

— Unday qilma! Ismoil haqida aytgan gaplaring yolg‘on, — dedi.

41–BOB

1 O‘sha yilning yettinchi oyida* shoh Zidqiyoning* bosh lashkarboshilaridan biri
bo‘lgan Nataniyo o‘g‘li Ismoil o‘nta odami bilan birga Mispaxga* — Oxixam o‘g‘li
Gadaliyoning huzuriga bordi. Ismoil shoh urug‘idan bo‘lgan Elishamaning nabirasi edi.
Gadaliyo kelganlar bilan birga dasturxon atrofida o‘tirib ovqatlanayotganda, 2 Ismoil va
u bilan kelgan o‘nta odam qilichlarini yalang‘ochlab, Bobil shohi hokim qilib tayinlab
ketgan Gadaliyoni o‘ldirishdi. 3 Gadaliyo bilan birga Mispaxda bo‘lgan hamma
yahudiylarni Ismoil qilichdan o‘tkazdi. U yerdagi Bobillik* sipohlarni ham o‘ldirdi.
4 Ertasi kuni Gadaliyo o‘ldirilganligi haqidagi xabar tarqalmay turib, 5 Shakam, Shilo‘
va Samariyadan* saksonta odam keldi. Ular qayg‘udan soqolini qirgan, kiyimlarini
yirtgan, tanalarini tilgan edilar*. Ular don va tutatqilarni nazr qilish uchun Egamizning
uyiga ketayotgan edilar. 6 Nataniyo o‘g‘li Ismoil ularni kutib olish uchun Mispaxdan
yig‘lab chiqdi. Ularga yaqinlashgach: “Qani, ichkariga, Gadaliyoning oldiga kiringlar”,
dedi. 7-9 Ular shaharga kirishlari bilanoq, Ismoil bilan uning odamlari ularni ham qirib
tashladilar. Ammo kelganlardan o‘ntasi Ismoilga yolvorib dedi: “Iltimos, bizni o‘ldirma!
Dalalarda yashirib qo‘ygan bug‘doy, arpa, zaytun moyi va asalimiz bor.” Ismoil ularni
o‘ldirmay, hayotlarini saqlab qoldi. O‘ldirgan odamlarning jasadlarini esa katta
sardobaga tashladi*. Jasadlarga to‘lgan bu sardobani Yahudo shohi Oso Isroil shohi
Basho hujum qilgan paytda qurdirgan edi*. 10 Ismoil Mispaxda omon qolgan hamma
odamlarni asir qilib oldi. Bobillik qo‘riqchilar sardori Nabizaradon Mispaxdagi hamma
odamlarni ularning orasidagi malikalarga qo‘shib, Gadaliyoning ixtiyoriga topshirgan
edi. Ismoil ularning hammasini asir qilib, Ommon yurtiga* jo‘nadi.
11 Nataniyo o‘g‘li Ismoilning qilgan jinoyatlari haqida Kariyox o‘g‘li Yo‘xanon va
lashkarboshilar xabar topdilar. 12 Ular bor odamlarini to‘plab, Ismoil bilan jang qilish
uchun yo‘lga tushdilar. Ular Ismoilga Givondagi* katta hovuz bo‘yida yetib oldilar.
13 Ismoilning asirlari Yo‘xanonni va uning yonidagi hamma lashkarboshilarni ko‘rib,
xursand bo‘lib ketishdi. 14 Ismoil Mispaxdan asir qilib olgan o‘sha odamlarning hammasi
orqaga — Yo‘xanonning oldiga yugurib kelishdi. 15 Ismoil esa sakkizta odami bilan
Yo‘xanondan qochib, Ommon yurtiga ketdi. 16 Shunday qilib, Yo‘xanon va uning
lashkarboshilari Mispaxdagi fojiada omon qolgan ayolu bola–chaqalarni, saroy
amaldorilariyu jangchilarni Gadaliyoning qotili Ismoilning qo‘lidan ozod qildilar. Ularni
o‘zlari bilan Givondan olib ketdilar. 17-18 Yo‘xanon odamlari bilan Bobilliklardan
qo‘rqqanlari uchun Misrga yo‘l oldilar. Chunki Bobil shohi yurtga hokim qilib tayinlagan
Gadaliyoni Ismoil o‘ldirgan edi. So‘ng hammasi yo‘lda Baytlahm yonidagi Ximam
qo‘nolg‘asida to‘xtadilar.

42–BOB

Xalq Yeremiyodan ibodat qilishini so‘raydi

1 Hamma lashkarboshilar, Kariyox o‘g‘li Yo‘xanon, Ho‘shayyo o‘g‘li Ozariyo* va
kattayu kichik odam 2 Yeremiyoning oldiga borib, shunday dedilar:
— Iltimos, bir og‘iz gapimizga quloq soling. Egangiz Xudoga biz uchun ibodat qiling,
tirik qolganlar uchun so‘rang. O‘zingiz ko‘rib turibsiz, ilgarilari biz nihoyatda ko‘pchilik
edik, endi esa sanoqli odam qoldik. 3 Biz qayerga borishimizni, nima qilishimizni

Egangiz Xudo bizga koʻrsatsin.

4 Yeremiyo paygʻambar ularga shunday javob berdi:

— Yaxshi, iltimosingizga binoan Egamiz Xudoga ibodat qilaman. Egamiz nimaiki desa hammasini sizlarga aytaman, hech narsani sizlardan yashirmayman.

5 Ular esa Yeremiyoga shunday dedilar:

— Agar biz Egangiz Xudoning siz orqali aytgan bironta soʻziga rioya qilmasak, Uning Oʻzi oramizda adolatli va sadoqatli shohid boʻlsin. 6 Biz Egamiz Xudoning hamma amrlariga, yaxshi yoki yomon boʻlishidan qat'i nazar, itoat qilamiz. Egamiz Xudoga itoat qilsak, hammasi yaxshi boʻladi.

Yeremiyoning ibodatiga Egamiz javob beradi

7 Oradan oʻn kun oʻtdi. Yeremiyoga Egamizning soʻzi ayon boʻldi. 8 Yeremiyo Kariyox oʻgʻli Yoʻxanonni, lashkarboshilarni va odamlarning kattayu kichigini toʻplab, 9 ularga shunday dedi: "Men iltimosingizga binoan Isroil xalqining Xudosi — Egamizga iltijo qildim. U menga shunday dedi: 10 «Endi shu yurtda qolsangizlargina Men sizlarni barbod qilmayman, balki qayta bunyod etaman, qoʻporib tashlamayman, balki mustahkam oʻrnashtiraman. Sizlarning boshingizga falokat keltirganimdan pushaymonman. 11 Bundan buyon Bobil shohidan qoʻrqmanglar, — deb aytmoqda Egamiz. — Men sizlar bilan birgaman. Shunday ekan, undan qoʻrqmanglar. Oʻzim sizlarni qutqaraman, uning qoʻlidan ozod qilaman. 12 Men sizlarga rahm–shafqat qilaman. Bobil shohi sizlarga achinib, ona yurtingizga oʻrnashtiradi.»

13 Ammo Egangiz Xudoga boʻysunmay: «Bu yerda qolmaymiz. 14 Misrga ketamiz, u yerda urush koʻrmaymiz, burgʻu sadolarini eshitmaymiz, nonga zor boʻlmaymiz, u yerda yashaymiz», deb aytadigan boʻlsangizlar, 15 ey Yahudo xalqining omon qolganlari, Egamizning soʻzini eshitib qoʻyinglar! Isroil xalqining Xudosi — Sarvari Olam shunday demoqda: «Agar sizlar Misrga borib, u yerda oʻrnashib olishga qaror qilgan boʻlsangizlar, 16 oʻsha yerga borganingizda oʻzlaringiz qoʻrqayotgan urushga duch kelasizlar. Sizlar ocharchilikdan qoʻrqyapsizlar, ammo ocharchilik ketingizdan Misrga ergashib boradi, u yerda nobud boʻlasizlar. 17 Misrga borib, u yerda oʻrnashib olishga jazm qilgan har bir kishi qilichdan, ocharchilik va oʻlatdan nobud boʻladi. Unday odamlardan birontasi ham tirik qolmaydi, Men ularning boshlariga keltiradigan kulfatdan hech kim qochib qutulmaydi.» 18 Isroil xalqining Xudosi — Sarvari Olam shunday demoqda: «Agar sizlar Misrga borgudek boʻlsangizlar, Men Quddus aholisiga yogʻdirgan qahrimni Misrda sizlarning ustingizga yogʻdiraman. Ahvolingizni odamlar koʻrganda dahshatga tushadi. Sizlarni mazax qilib, nomingizni qargʻishlarda ishlatishadi. Sizlar bu yurtni boshqa hech qachon koʻrmaysizlar.»

19 Ey Yahudo xalqining omon qolganlari, Egamiz sizlarga, Misrga bormanglar, deb aytdi. Bilib qoʻyinglar, bugun men sizlarni ogohlantirib qoʻyyapman, 20 sizlar katta xato qilyapsizlar. Oʻzlaringiz meni Egangiz Xudoning oldiga joʻnatib: «Iltimos, Egamiz Xudoga iltijo qil, Egamiz Xudo nima desa, hammasini qilamiz», degan edingizlar. 21 Egangiz Xudoning menga aytgan hamma soʻzlarini bugun sizlarga aytdim, ammo sizlar Uning aytgan bironta soʻziga itoat qilishni xohlamayapsizlar. 22 Sizlarga aytib qoʻyay: bormoqchi boʻlayotgan joyingizda sizlar qilichdan, ocharchilik va oʻlatdan nobud boʻlasizlar."

43–BOB

Yeremiyoni Misrga olib ketishadi

1 Yeremiyo Egasi Xudo o‘ziga ayon qilgan bu so‘zlarning hammasini butun xalqqa
aytib bo‘lgach, 2 Ho‘shayyo o‘g‘li Ozariyo, Kariyox o‘g‘li Yo‘xanon va boshqa surbetlar
Yeremiyoga shunday dedilar:
— Yolg‘on gapiryapsan! Egamiz Xudo senga, Misrga borib yashamanglar, deb
aytmagan. 3 Neriyo o‘g‘li Borux seni bizga qarshi gijgijlab yuribdi. U bizni
Bobilliklarning* qo‘liga tushirib, halok qilmoqchi yoki surgun qilib yubormoqchi.
4 Shunday qilib, Kariyox o‘g‘li Yo‘xanon, lashkarboshilar va butun xalq Egamizning
amriga itoat qilmadilar, ular Yahudo yurtida qolishdan bosh tortdilar. 5 Yahudoga turli
yurtlardan qaytib kelgan hamma odamlarni Yo‘xanon va lashkarboshilar o‘zlari bilan
olib ketdilar. 6 Bulardan tashqari, qo‘riqchilar sardori Nabizaradon Oxixam o‘g‘li
Gadaliyo yonida qoldirib ketgan hamma erkagu ayollarni, bola–chaqa, malikalar,
Yeremiyo payg‘ambar va Neriyo o‘g‘li Boruxni ham ular o‘zlari bilan olib ketdilar. 7 Ular
Egamizning amriga itoat qilmay, Misrga jo‘nab, Taxpanxas shahriga yetib bordilar.
8 Taxpanxasda Yeremiyoga Egamizning quyidagi so‘zi ayon bo‘ldi: 9 “Yahudiylarning
ko‘zi oldida katta toshlarni ol. Bu toshlarni Taxpanxas shahridagi fir’avn saroyining
kiraverishiga, hovlidagi g‘isht yo‘lagi ostiga ko‘mib qo‘y. 10 So‘ng yahudiylarga shunday
deb ayt: «Isroil xalqining Xudosi — Sarvari Olam demoqda: Men Bobil shohi qulim
Navuxadnazarni* bu yerga olib kelaman. U mana shu ko‘milgan toshlarning ustiga
taxtini o‘rnatib, shohona chodirini tikadi. 11 U kelganda Misrni vayron qiladi, har bir
odam peshanasidagini ko‘radi:

Ba’zilar o‘latga yo‘liqib, nobud bo‘ladi,
Ba’zilar asirlikka tushib, surgun qilinadi,
Ba’zilar qilichdan o‘tkaziladi.

12 Mening amrim bilan Navuxadnazar Misr xudolarining sajdagohlariga o‘t qo‘yadi. Ba’zi
butlarini yondiradi, ba’zilarini o‘zi bilan olib ketadi. Qo‘ychivon to‘nini bit–burgadan
astoydil tozalaganday, Navuxadnazar ham Misr yurtini qirtishlab tozalaydi. So‘ng sog‘–
salomat o‘z yurtiga qaytib ketadi. 13 U Misrdagi Quyosh sajdagohiga* o‘rnatilgan
butsimon toshlarni buzib tashlaydi. Misr xudolarining sajdagohlarini yoqib yuboradi.»”

44–BOB

Egamiz Misrdagi yahudiylarga tanbeh beradi

1 Misrning shimolidagi Migdol, Taxpanxas va Nuf shaharlarida*, shuningdek,
Misrning janubida* istiqomat qilayotgan yahudiylar to‘g‘risida Yeremiyoga Egamiz shu
so‘zini ayon qildi. 2 Isroil xalqining Xudosi — Sarvari Olam shunday demoqda: “Men
Quddus va Yahudoning hamma shaharlariga keltirgan barcha falokatlarni sizlar o‘z
ko‘zingiz bilan ko‘rdingizlar. O‘sha shaharlar hozir xarob bo‘lib, huvullab yotibdi.
3 Yahudo odamlari qabih ishlari bilan Meni g‘azablantirdilar. Ular begona xudolarga
sig‘inib, qurbonliklar kuydirdilar. Bu begona xudolarni na ularning o‘zlari, na sizlar, na
ota–bobolaringiz biladilar. 4 Men Yahudo xalqi oldiga payg‘ambar qullarimni qayta–

qayta jo‘natdim. «Men nafratlanadigan jirkanch ishlaringizni qilmanglar», deb
xalqimdan o‘tingan edim. 5 Ammo Yahudo xalqi quloq solmadi, gaplarimga e’tibor ham
bermadi. Qabihliklaridan qaytmadi, begona xudolarga qurbonliklar qilishda davom etdi.
6 Shunda achchiq g‘azabim Yahudo shaharlari bilan Quddus ko‘chalariga lovullagan olov
bo‘lib tushdi. Hozir o‘sha joylar huvullab, tashlandiq bo‘lib yotibdi.”
7 Endi Isroil xalqining Xudosi, Parvardigori Olam — Egamiz shunday demoqda:
“Nega o‘z boshingizga bunday falokat keltirmoqchisizlar?! Yahudo yurtidan kelgan
erkagu ayol, bola–chaqaning boshiga yetib, hammangiz bitta qolmay qirilib
ketmoqchimisizlar?! 8 Sizlar Misrda o‘rnashib olib, begona xudolarga qurbonliklar
qilyapsizlar. Qilmishlaringiz bilan jahlimni chiqaryapsizlar. Ehtiyot bo‘linglar, yana
boshingizga baloyu ofat orttirib olmanglar. Dunyo xalqlarining qarg‘ishiga qolib,
hammaga kulgi bo‘lib qolmanglar. 9 Yahudo shaharlarida va Quddus ko‘chalarida qilgan
qabihliklaringizni unutdingizmi?! Bularni ota–bobolaringiz, Yahudo shohlariyu
malikalari, o‘zlaringiz va xotinlaringiz qilgansizlar–ku! 10 Mana bugungacha sizlar
Mendan zarracha ham qo‘rqmadingizlar, afsus–nadomat qilmadingizlar. Sizlar ota–
bobolaringizga bergan qonun–qoidalarim bo‘yicha yashamayapsizlar.”
11 Shuning uchun Isroil xalqining Xudosi — Sarvari Olam demoqda: “Men
boshingizga ofatu falokat keltiraman. Yahudo xalqini yo‘q qilishga qat’iy qaror qildim.
12 Misrda yashashga qaror qilgan yahudiylarning omon qolganlarini halok etaman.
Hammasi Misrda o‘lib ketadi. Kattayu kichigi qilich va qahatchilikdan nobud bo‘ladi.
Ularning ahvolini ko‘rganlar vahimaga tushadi. Ularni mazax qilib, nomini qarg‘ishlarda
ishlatishadi. 13 Misrda yashagan o‘shalarni, Men Quddusni jazolaganday, urush,
qahatchilik va o‘lat ila jazolayman. 14 Misrda yashayman, deb kelgan yahudiylarning
omon qolganlaridan birontasi qochib qutula olmaydi. Ulardan hech kim tirik qolmaydi,
Yahudo yurtiga qaytib borolmaydi. O‘z yurtiga qaytib borishni orzu qilgan odamlardan
faqatgina bir–ikki qochoq ona yurtiga qaytib borishga muvaffaq bo‘ladi, xolos.”
15 Xotinlari boshqa xudolarga qurbonlik keltirganini bilgan erkaklar, o‘sha yerda
turgan ayollar — Misrning shimoliy va janubiy hududida* yashayotgan yahudiylarning
ko‘pchiligi bir ovozdan Yeremiyoga shunday dedilar: 16 “Sen Egamizning nomidan bizga
bashorat qilib aytgan so‘zlaringga quloq solmaymiz. 17 Biz samo qirolichasiga*
qurbonliklar qilamiz, sharob nazrini keltiramiz, deb ont ichganmiz, bu ontimizdan
qaytmaymiz. Biz o‘zlarimiz, ota–bobolarimiz, shohlarimiz, a’yonlarimiz Yahudo
shaharlarida, Quddus ko‘chalarida nima qilgan bo‘lsak, shuni qilaveramiz. Nega
desangiz, o‘sha zamonlarda biz istaganimizcha non yerdik, turmushimiz farovon edi,
g‘am chekmas edik. 18 Ammo samo qirolichasiga qurbonliklar qilishni va sharob nazrini
keltirishni to‘xtatganimizdan beri yetishmovchilikdan boshimiz chiqmaydi. Qancha
odamlarimiz ocharchilikdan o‘lib, urushda qirilib ketdi.” 19 Xotinlar ham shunday deb
aytdilar: “Biz samo qirolichasiga qurbonliklar qilaveramiz, sharob nazrlarini
keltiraveramiz! Samo qirolichasiga sharob nazr qilishimizni, uning shaklida nonlar
yopishimizni erlarimiz biladi–ku!”
20 So‘ng Yeremiyo bunday javob bergan erkagu ayollarga va butun xaloyiqqa dedi:
21 “Sizlar, ota–bobolaringiz, shohlaringiz, a’yonlaringiz, butun yurt xalqi Yahudoda va
Quddus ko‘chalarida boshqa xudolarga nazrlar keltirgan edingizlar. Bu nazrlaringizni
Egamiz unutgan, deysizmi?! Yoki Uning bundan xabari yo‘q, deb o‘ylaysizmi?! 22 Egamiz
yovuz qilmishlaringizga, jirkanch ishlaringizga ortiq toqat qila olmagani uchun hozir

yurtingiz huvullab, tashlandiq bo‘lib yotibdi. Odamlar yurtingizning nomini
qarg‘ishlarda ishlatishmoqda. 23 Axir, sizlar begona xudolarga qurbonliklar keltirib,
Egamizga qarshi gunoh qildingizlar. Egamizga itoat etmadingizlar, Uning qonun–
qoidalarini va shartlarini bajarmadingizlar. Shuning uchun bu ko‘rgilik boshingizga
keldi. Shularning oqibatida hozir bu ahvolga tushib o‘tiribsizlar.”
24 Yeremiyo ularning hammasiga, ayniqsa, xotinlarga qarata shunday dedi: “Ey Misr
yurtidagi yahudiylar, Egamizning so‘zini eshitinglar. 25 Isroil xalqining Xudosi — Sarvari
Olam demoqda: «Sizlar xotinlaringiz bilan birga: ‘Samo qirolichasiga albatta
qurbonliklar qilamiz, sharob nazrlarini keltiramiz’, deb ont ichibsizlar. Ontingizni ham
bajaribsizlar. Juda soz, aytganingizni qilaveringlar! Ichgan ontingizdan aslo
qaytmanglar! 26 Lekin, ey Misr yurtida yashab yurgan yahudiylar, Egangizning shu
so‘zini eshitib qo‘yinglar: Men O‘zimning buyuk nomim bilan ont ichib aytamanki,
bundan buyon Misr yurtidagi bironta yahudiy Mening nomimni tilga olmaydi, ‘Egam
Rabbiy shohid’, deya ont ichmaydi. 27 Men ularning boshiga yaxshilik emas, yomonlik
keltiraman. Misrdagi yahudiylarning hammasi, bitta ham qolmay qilichdan va
ocharchilikdan nobud bo‘lishadi. 28 Bir–ikkitagina odam qirg‘indan qochib, Misrdan
Yahudoga qaytib boradi. O‘shanda Misrga yashagani borgan yahudiylarning hammasi
kimning so‘zi haq bo‘lib chiqqanini bilishadi. Mening so‘zim haqmikan yoki ularniki?»
29 Egamiz shunday demoqda: «Men sizlarni mana shu yerda jazolayman.
Aytganlarimning hammasi bajo bo‘lishiga ishonch hosil qilishingiz uchun sizlarga
shunday bir alomat beraman: 30 Men Yahudo shohi Zidqiyoni* uning ashaddiy dushmani
bo‘lgan Bobil shohi Navuxadnazarga* taslim qilganimday, Misr fir’avni Xofrani* ham
uning joniga qasd qilayotgan dushmaniga taslim qilib beraman.» Egamizning kalomi
shudir.”

45–BOB

Xudo Boruxga va’da beradi

1 Yahudo shohi Yo‘shiyo o‘g‘li Yohayiqim hukmronligining to‘rtinchi yili* edi.
Yeremiyo yuqoridagi so‘zlarni Neriyo o‘g‘li Boruxga aytib, o‘rama qog‘ozga*
yozdirgandan so‘ng*, unga shunday dedi:
2-4 — Ey Borux, Isroil xalqining Xudosi — Egamiz senga shunday gaplarni aytib
qo‘yishimni buyurdi: sen: “Sho‘rim qursin! Egam qayg‘u ustiga qayg‘u orttirdi, yurak–
bag‘rim ezilib ketdi, jonimni qo‘yarga joy topolmayapman”, deb aytgan ekansan.
Shuning uchun Egamiz senga aytmoqda: “Men butun yurt bo‘ylab bunyod qilgan hamma
narsamni buzib tashlayman, mustahkam qilib o‘rnatganlarimni qo‘porib tashlayman.
5 Sen o‘zing uchun katta rejalar tuzma! Mana, Men barcha odamzodning boshiga kulfat
yog‘diraman. Ammo sening joningni saqlab qolaman, borgan joyingda seni asrayman.”
Egamizning kalomi shudir.

46–BOB

Misr lashkari Karxamishda mag‘lub bo‘ladi

1 Egamiz xalqlar haqida Yeremiyoga O‘z so‘zini ayon qildi.

2 Bu Misr haqida bashorat edi. Aniqrog‘i, Misr fir’avni Nexoning* lashkari to‘g‘risida
edi. Ular Furot daryosi bo‘yidagi Karxamish shahrida qarorgoh qurgan edilar. (Yahudo
shohi Yo‘shiyo o‘g‘li Yohayiqim hukmronligining to‘rtinchi yilida* Bobil shohi
Navuxadnazar* bu lashkarni mag‘lub qildi.)

3 Egamiz shunday deydi:
“Kattayu kichik qalqonlarni tayyor tuting!
Qani, endi jangga kiring!
4 Otlarga egar uring,
Chopqir otlarga mining!
Dubulg‘alarni kiyib oling,
Jangovar holatda turing.
Nayzalarni o‘tkirlang,
Sovutlarni kiyib oling!

5 Ammo nimalarni ko‘ryapman?!
Misr lashkari vahimaga tushdi,
Ular orqaga chekindi,
Jangchilari tor–mor bo‘ldi.
Ular orqaga qaramay shoshilib qochdilar.
Atrofni dahshat qamradi,
— deb aytmoqda Egamiz. —
6 Chaqqonlar qocha olmaydilar,
Sipohlar qochib qutulolmaydilar.
Ular shimolda, Furot daryosi bo‘yida
Qoqilib yiqilib tushadilar.”

7 Kim u Nil daryosiday qirg‘og‘idan chiqib ketgan?!
Kim u suvlari toshqin daryo kabi bo‘lib qolgan?!
8 Misr Nilday haddidan oshgan,
Suvlari toshqin daryoga o‘xshab qolgan.
Misr aytadi:
“Men ko‘tarilib, yer yuzini qoplayman,
Shaharlarni vayron qilaman,
Aholisini qirib tashlayman.”
9 Ey otliqlar, hujum qiling!
Jang aravalarini uchirtiring!
Ey qalqon tutgan Habashistonliklaru* Liviyaliklar*,
Ey kamon ushlagan Lidiyaliklar*,
Qani, jangga kiring!
10 Axir, bu Sarvari Olam — Rabbiyning kunidir.
Bu kun qasos kuni bo‘ladi,
Xudo dushmanlaridan o‘ch oladi.
Uning qilichi to‘yguncha et yeydi,
Chanqog‘i bosilguncha qondan ichadi.

O‘sha kuni Furot bo‘yidagi shimoliy yurtda,
Sarvari Olam — Rabbiy yovlarini qurbon qiladi.

11 Ey bokira qiz* Misr,
Giladga* bor, malham olgin.
Ammo sen bekorga dori–darmon yig‘asan,
Baribir dardingga shifo topmaysan.
12 Xalqlar sharmanda bo‘lganingni eshitdi,
Yer yuzi dodu faryodlaringga to‘lib ketdi.
Jangchilaring bir–biriga urildi,
Hammasi mag‘lub bo‘lib yiqildi.

Navuxadnazar Misrga hujum qiladi

13 Bobil shohi Navuxadnazar Misrga hujum qilishi haqida Yeremiyoga Egamizning quyidagi so‘zi ayon bo‘ldi:

14 Misrda shunday deb e’lon qilgin,
Migdol shahrida shunday deb xabar bergin,
Nuf va Taxpanxas shaharlarida* jar solib aytgin:
“Joylaringizni egallang!
Jangga shay turing!
Zero, qilich atrofdagi hammani qiradi.”
15 Jangchilaringiz mag‘lub bo‘ladi!
Ular bardosh bera olmaydi.
Zero, Egamizning O‘zi ularni uradi*.
16 Ular qayta–qayta qoqiladilar*,
Bir–birining ustiga yiqiladilar.
Shunda o‘zlariga o‘zlari aytadilar:
“Qani, bo‘linglar,
Xalqimizning oldiga qochib qolaylik!
Kindik qonimiz to‘kilgan yurtga boraylik.
Bu qirg‘indan qochib qutulaylik.”
17 Ular shunday deb baqiradilar:
“Fir’avn katta gapirdi,
Ammo fursatni qo‘ldan boy berdi.”

18 Xudo Shohdir,
Sarvari Olamdir Uning nomi.
U shunday demoqda:
“Men barhayot Xudo bo‘lganim haqi aytamanki,
Sizlarga qarshi bir g‘anim kelayotir.
U tog‘lar orasidagi Tovur tog‘iday zabardast,
Dengiz bo‘yidagi Karmil tog‘iday* ulkan.
19 Ey qiz Misr, tuguningni tayyorlagin,
Surgunga ketishga hozirlangin!
Axir, poytaxting Nuf vayron bo‘ladi,

Kimsasiz, huvullab qoladi.

20 Misr chiroyli bir g‘unajinga o‘xshaydi,
Ammo shimol so‘nasi* unga yopiriladi.
21 Misrning yollanma askarlari
Boqilgan buzoqlarga o‘xshaydi.
Ammo kulfat kuni kelganda,
Jazo oladigan vaqti yetganda,
Ularning hammasi orqaga qochadi,
Dushman qarshisida chekinadi.

22 Bostirib kelayotgan dushman dastidan
Misr qochayotgan ilonday vishillaydi.
Dushmanlar daraxt kesuvchilar kabi,
Bolta ko‘tarib, Misrga hujum qilishadi.
23 Misrning o‘rmoni qalin bo‘lsa–da,
Dushmanlar uni kesib tashlaydi,
— deb aytmoqda Egamiz. —
Axir, dushmanlar chigirtkadan* ham ko‘p,
Sanog‘iga yetib bo‘lmaydi.
24 Qiz Misr sharmanda bo‘ladi,
Shimoldagi xalqning* qo‘liga tushadi.”

25 Isroil xalqining Xudosi — Sarvari Olam shunday demoqda: “Men No‘* shahrining xudosi Omonni* jazolayman. Fir’avnning, Misrning, u yerdagi shohlar va xudolarning, fir’avnga umid bog‘lagan hammaning adabini beraman. 26 Ularning jonlariga qasd qilayotgan Bobil shohi Navuxadnazarning va a’yonlarining qo‘liga beraman. Ammo vaqt o‘tib, Misrda ilgarigidek odamlar yashaydigan bo‘ladi.” Egamizning kalomi shudir.

Egamiz O‘z xalqini qutqaradi

27 “Ey qulim Yoqub, qo‘rqma!
Ey Isroil* xalqi, sarosimaga tushma!
Men seni olis yurtdan ozod qilaman,
Naslingni surgun bo‘lgan mamlakatdan qutqaraman.
Ey Yoqub nasli, sen yurtingga qaytasan,
Osoyishta va bexatar yashaysan.
Endi hech kim seni qo‘rqitmaydi.
28 Sen, ey qulim Yoqub, qo‘rqma,
Men sen bilan birga bo‘laman,
— deb aytmoqda Egamiz. —
Seni xalqlar orasiga tarqatib yuborgan edim,
Endi o‘sha xalqlarning hammasini qirib tashlayman.
Seni esa qirib yubormayman,
Ammo jazosiz ham qoldirmayman.
Adolat ila jazoingni beraman.”

47–BOB

Filist xalqining taqdiri

1 Fir’avn G‘azo shahriga* hujum qilishidan oldin, Filist xalqi haqida Egamizning shu
so‘zlari Yeremiyoga ayon bo‘ldi:

2 Egamiz aytmoqda:
“Qarang, shimolda dushmanlar to‘planmoqda,
Ular to‘lqinlar kabi, pishqirib kelmoqda.
Jo‘shqin daryo kabi, toshib hovliqmoqda.
Ular to‘fonday butun yurtni bosib ketadi,
U yerdagi hammani —
Shaharlar va odamlarni cho‘ktiradi.
Xalq dodu faryod qiladi,
Yurt aholisi fig‘on chekadi.
3 Ot tuyoqlari dupur–dupur uradi,
Aravalar taraq–turuq qiladi,
G‘ildiraklar gursullaydi.
Erkaklar ichidan zil ketadilar.
Hatto bolalarini qutqargani ham
Ular orqaga qaytmaydilar.”

4 Ha, o‘sha kun keladi,
Filist xalqi qirib tashlanadi!
Omon qolgan ittifoqchilari yo‘q qilinadi.
Tir va Sidon* shaharlariga yordam kelmaydi,
Xafto‘r* sohillaridan kelgan Filistlarni
Egamizning O‘zi yo‘q qiladi.
5 G‘azo aholisi qayg‘udan sochlarini qirdiradi,
Ashqalon* odamlarining dami ichiga tushib ketadi.
Ey Filist zabardastlarining omon qolganlari!*
Qachongacha g‘am chekib, badaningizni tilasiz?!*

6 Filist xalqi shunday deb yolvoradi:
“Sho‘rimiz qursin! Ey Egamizning qilichi!
Qachon tinib–tinchiysan sen?!
Bo‘ldi yetar, tinchlana qol!
Qiningga kir, damingni ol!”

7 Evoh, Egamizning O‘zi amr etgan bo‘lsa,
Qanday dam olsin u qilich?!
“Ashqalon shahriga va sohilga hujum qil” degan bo‘lsa,
Qanday tinchlansin u qilich?!

48–BOB

Mo‘abning taqdiri

1 Isroil xalqining Xudosi — Sarvari Olam Mo‘ab* haqida shunday demoqda:

“Navo aholisining holiga voy!
Ularning shahri xarob bo‘ladi.
Xiratayim* sharmandalarcha mag‘lub bo‘ladi,
Uning qal’asi* uyatga qoladi,
Yer bilan yakson qilinadi.
2 Mo‘abning dovrug‘idan asar ham qolmaydi.
Dushman Xashbon shahrini qo‘lga kiritadi,
Mo‘ab xalqini ildizidan quritishni reja qiladi.
Madmon* shahrida sukunat hukm suradi,
Qilich uning iziga tushadi.

3 Ana, Xo‘ronayimdan* faryod eshitilmoqda!
«Xonavayron bo‘ldik!» deya xitob qilishmoqda.
4 «Mo‘ab vayron bo‘ldi–ku!» deya dodlashmoqda.
Go‘daklari big‘illab yig‘lamoqda.
5 Odamlar achchiq–achchiq yig‘lab,
Luxit tepaligiga chiqishadi.
Hatto Xo‘ronayimga tushish yo‘lida
Achchiq fig‘on ovozlari eshitiladi.
6 Tezroq qoching!
Cho‘ldagi yulg‘unday
Joningizni saqlab qolishga tirishing!

7 Ey Mo‘ab, sen kuch va boyligingga tayanding,
Endi esa mag‘lub bo‘lasan.
Xudoying Xamo‘sh surgun qilinadi,
Ruhoniylaringu a’yonlaring asir qilib olib ketiladi.
8 Sening har bir shahringga vayron etuvchi keladi,
Birorta shahring omon qolmaydi.
Vodiy vayron qilinadi,
Yassi tepalik yakson etiladi.”
Egamizning kalomi shudir.

9 Mo‘ab uchun qabr toshi tayyorlang,
Ko‘p o‘tmay Mo‘ab yo‘q bo‘ladi*.
Shaharlari vayron qilinadi,
Hammasi huvullab qoladi.

10 Egamizning ishidan bo‘yin tovlagan kishi la’nati bo‘lsin! Qon to‘kishdan o‘zini tiygan bunday kishi la’nati bo‘lsin!

Mo‘ab shaharlari vayron bo‘ladi

11 “Mo‘ab yoshligidan bexatar o‘sgan,
Tindirilgan sharob kabi tinch yashagan.
Go‘yo bir idishdan boshqasiga quyilmagan,
Hech qachon o‘z yurtidan surgun bo‘lmagan.
Shu bois uning ta’mi o‘zgarmagan,
Muattar hidi saqlanib qolgan.
12 Ammo shunday kunlar kelmoqdaki,
Men Mo‘abga qarshi odamlarni jo‘nataman,
— deb aytmoqda Egamiz. —
Ular Mo‘abni sharob to‘kkanday to‘kib tashlaydilar.
Idishlarini bo‘shatib, chilparchin qiladilar.
13 Mo‘ab xalqi o‘z xudosi Xamo‘sh dastidan sharmanda bo‘ladi,
Isroil xalqining holiga tushadi.
Axir, Isroil ham Baytildagi buzoqqa* inonib,
Sharmandayi sharmisor bo‘lgan edi–ku!”

14 “Biz qahramonlarmiz,
Jasur jangchilarmiz”, deb
Aytishga qanday haddingiz sig‘di?
15 Xudo Shohdir,
Sarvari Olamdir Uning nomi.
U shunday demoqda:
“Mo‘ab vayron bo‘ladi,
Shaharlari bosib olinadi.
Eng sara yigitlari qirib tashlanadi.
16 Mo‘abga kulfat yaqinlashmoqda,
Falokat unga yelday uchib kelmoqda.
17 Ey Mo‘ab qo‘shnilari, qayg‘uringlar,
Ey Mo‘abni taniganlar, motam tutinglar.
Aytinglar: «Evoh, saltanat hassasi* sindi.
Qudratli va ulug‘vor hassa parchalandi.»

18 Ey Dibonda* yashaydiganlar,
To‘rdagi o‘rningizdan turinglar,
Yerdagi tuproqqa o‘tiringlar.
Zero, Mo‘abni halok etuvchi sizga qarshi chiqadi,
U qo‘rg‘onlaringizni qulatadi.
19 Ey Arorda* yashaydiganlar,
Ko‘chaga chiqib kuzatib turinglar!
Qochib ketayotgan erkagu ayollardan
«Nima bo‘ldi?» deb so‘ranglar.
20 Evoh, Mo‘ab sharmanda bo‘ldi, vayron qilindi.
Uvvos solib, faryod qilinglar!
Mo‘ab xarob bo‘lganini

Arnon daryosi bo‘ylarida e’lon qilinglar.

21 Men yassi tepaliklarda joylashgan hamma shaharlarni: Xo‘lunni, Yaxazni*, Mifatni,
22 Dibonni, Navoni, Bayt–Diblatayimni, 23 Xiratayimni, Bayt–Gamulni, Bayt–Miyonni,
24 Xariyo‘tni, Bozraxni* jazolayman. Xullas, uzoq–yaqinda joylashgan hamma Mo‘ab
shaharlari vayron bo‘ladi. 25 Mo‘abning qudrati sinadi, kuchi kesiladi.” Egamizning
kalomi shudir.

Mo‘ab sharmanda bo‘ladi

26 O‘zini Egamizdan ustun qo‘ygan Mo‘abni mast* qilinglar. O‘z qusug‘ida o‘zi
dumalab yotsin, odamlarga kulgi, masxara bo‘lsin. 27 Ey Mo‘ab, esingdami, Isroil ustidan
kulgan eding! U o‘g‘rimidiki, u haqda gapirganingda boshingni chayqagan eding!

28 Ey Mo‘ab aholisi!
Shaharlarni tark eting,
Qoyalar orasida yashab yuravering.
Tog‘ darasida in qurgan kabutarlarday bo‘ling.
29 Eshitganmiz Mo‘abning mag‘rurligini,
Manmanligi, kiborligi, takabburligini!
Naqadar takabburdir u!
Nihoyatda gerdayib ketgan!
30 Egamiz shunday demoqda:
“Men bu xalqning surbetligini bilaman.
Ular behuda maqtanadilar.
31 Shunday ekan, Mo‘ab uchun Men yig‘layman,
Butun Mo‘ab xalqi uchun faryod qilaman.
Xir–Xarasot* aholisi uchun ko‘z yosh to‘kaman.
32 Ey Sivmo qishlog‘ining uzumzorlari,
Men ham, Yazir shahri singari, sizlar uchun qayg‘uraman*.
Sizning novdalaringiz o‘sib ketdi,
Hatto O‘lik dengizdan ham oshib o‘tdi,
Shoxlaringiz Yazir shahrigacha* yetdi.
Ammo yozgi mevalar va uzumlaringizga
Zararkunandalar tushdi.
33 Mo‘abning hosildor yerlarida
Shodligu xursandchilik barham topdi.
Men uzum siqish chuqurlaridagi*
Sharobni tortib olaman.
Endi hech kim shodlikdan hayqirib uzum ezmaydi,
Shodon qiyqiriqlar endi eshitilmaydi.

34 Xashbon, Elaley ahli faryod chekadi,
Ularning ovozi Yaxazgacha eshitiladi.
Sadosi Zo‘vardan Xo‘ronayimgacha jaranglaydi,
To Eglat–Shalishiyogacha yetib boradi.
Hatto Nimrim suvlari nobud bo‘ladi.

35 Mo‘ab sajdagohlarida* qurbonlik qilganlarni o‘ldiraman,
O‘z xudolariga atab tutatqi tutatganlarni yo‘q qilaman,
— deb aytmoqda Egamiz. —
36 Qalbim nay kabi nola qilib,
Mo‘ab uchun qayg‘urmoqda.
Ha, qalbim nay kabi,
Xir–Xarasot odamlari uchun yig‘lamoqda.
Axir, ularning yiqqan boyligi yo‘q bo‘ldi.
37 Qayg‘udan hamma sochini oldirgan,
Hamma soqolini qirib tashlagan,
Hamma qo‘llarini tilgan*,
Bellariga qanor o‘rab olgan*.
38 Mo‘abdagi hamma tomlar ustida*,
Hamma shahar maydonlarida
Faqat marsiya aytiladi.
Zotan, Men Mo‘abni sindirib tashlayman,
Keraksiz idishday chilparchin qilaman,
— deb aytmoqda Egamiz. —
39 Mo‘ab chil–chil sinadi!
Odamlari achchiq–achchiq yig‘laydi!
Sharmandalikdan Mo‘ab yuzini yashiradi!
Mo‘ab hammaga masxara bo‘ladi,
Uning ahvolidan qo‘shni xalqlar vahimaga tushadi.”

Mo‘ab dushmanlardan qutula olmaydi

40 Egamiz shunday demoqda:
“Qaranglar!
Dushman burgut singari, Mo‘abga hujum qilmoqda,
Qanot kerib Mo‘ab uzra parvoz etmoqda.
41 Mo‘ab shaharlari* endi olinadi,
Qal’alari qo‘lga kiritiladi.
O‘sha kuni Mo‘ab lashkarlari vahimaga tushadi,
Ular dard tutgan ayol kabi bo‘lib qoladi.
42 Axir, Mo‘ab o‘zini Mendan ustun qo‘ydi,
Endi u nobud bo‘ladi.
43 Ey Mo‘ab ahli, sizni vahima,
Tuzoq va choh kutmoqda!
— deb aytmoqda Egamiz. —
44 Vahimadan qochgan chuqurga tushar,
Chuqurdan chiqqan esa tuzoqqa ilinar.
Men Mo‘abning boshiga
Jazo yilini keltiraman,
— deb aytmoqda Egamiz. —

45 Holdan toygan qochoqlar
Xashbon shahri soyasida to‘xtaydi.

Ammo olov chiqadi Xashbon shahridan,
Alanga chiqadi shoh Sixo‘nning shahridan*.
Yong‘in butun Mo‘ab yurtini yamlab yutadi,
Isyonkor odamlarning boshini yeydi*.
46 Ey Mo‘ab, holingga voy!
Xamo‘shga sig‘inganlar nobud bo‘ladi,
O‘g‘il–qizlaring asirlikka tushadi.

47 Ammo keyinchalik
Men Mo‘ab xalqini yana farovonlikka erishtiraman*.”
Egamizning kalomi shudir.

Mo‘ab to‘g‘risidagi bashoratlar o‘z nihoyasiga yetdi.

49–BOB

Egamiz Ommon xalqini hukm qiladi

1 Egamiz Ommon* xalqi to‘g‘risida shunday deydi:

“Isroil tirnoqqa zormidi?!
Uning merosxo‘ri yo‘qmidi?!
Nimaga unda Mo‘laxga* topinadiganlar
Gad hududini egallab olishdi?
Nimaga Ommon xalqi Gad shaharlarida yashayapti?
2 Bu qilmishlari uchun shunday kunlar keladiki,
Men Ommonliklarning Rabba shahriga* qarshi urush e’lon qilaman,
— deb aytmoqda Egamiz. —
Rabba shahrini vayronalar uyumiga aylantiraman,
Atrofdagi qishloqlariga o‘t qo‘yaman.
Shunda Isroil xalqi Ommon bosqinchilarining yerlarini bosib oladi,
— deb aytmoqda Egamiz. —

3 Dod sol, ey Xashbon!*
Ay shahri* vayron bo‘ldi!
Ey Rabba aholisi, faryod qiling!
Qanorga o‘ranib*, marsiya ayting,
Qayg‘udan badaningizni tiling*.
Axir, xudoyingiz Mo‘lax surgun qilinadi,
Ruhoniylaru a’yonlaringiz asirga olib ketiladi.
4 Ey isyonkor qiz* Ommon,
Nechun kuching bilan maqtanasan?
Sening kuching qirqiladi!*
Sen boyligingga ishonasan,
«Bizga hujum qilishga kim jur’at etar?» deysan.
5 Men O‘zim senga har tomondan dahshat solaman,
— deb aytmoqda Sarvari Olam — Rabbiy. —

Hammangiz tumtaraqay bo‘lib qochasizlar,
Qochoqlarni hech kim to‘play olmaydi.

6 Ammo shundan so‘ng
Men Ommon xalqini yana farovonlikka erishtiraman*.”
Egamizning kalomi shudir.

Edom xalqi hukm qilinadi

7 Sarvari Olam Edom* haqida shunday demoqda:

“Temonda* farosatli kishi qolmadimi?
Oqilona nasihat beradigan topilmadimi?
Aqllarini mog‘or bosdimi?
8 Ey Dedonliklar*, qochinglar,
Chuqur g‘orlarda bekinib olinglar!
Vaqt keldi Esov naslini* jazolashga,
Falokat keltiraman uning boshiga.
9 Bog‘ingizda uzum tergan odamlar
Bir–ikki bosh bo‘lsa–da, uzum qoldiradi–ku!
Kechasi uyga tushgan o‘g‘ri
Faqat xohlagan narsasini oladi–ku!
10 Men esa Esovning bor–yo‘g‘ini tortib olaman,
Uning pana joylarini oshkor qilaman,
U hech qayerga yashirina olmaydi.
Uning bolalari halok bo‘ladi,
Og‘a–ini, qo‘shnilari o‘ladi.
Undan asar ham qolmaydi.
11 Yetimlaringizni qoldiring,
Ularning jonini asrayman.
Bevalaringiz Menga inonib yashasin.”

12 Egamiz shunday demoqda: “Aybsiz odamlar jabr tortsa–yu, sen, ey Edom, jazosiz qolasanmi?! Yo‘q, sen jazodan qochib qutulolmaysan. Jazo kosasidan* albatta ichasan. 13 O‘z nomim bilan qasam ichib* aytamanki, Bozrax shahri* vayron bo‘ladi. Uning ayanchli ahvoli odamlarni vahimaga soladi. O‘tgan–ketganlar uni mazax qilib, nomini qarg‘ishlarda ishlatadi. Yon–atrofidagi hamma shaharlar ham to abad tashlandiq bo‘lib qoladi.” Egamizning kalomi shudir.

14 Egamiz barcha xalqlarga jarchi yubordi,
Men, Yeremiyoga shunday xabar yetib keldi:
“To‘planing! Edomga hujum qiling,
Qani, jangga otlaning!”

15 Egamiz deydi:
“Ey Edom, seni xalqlar orasida arzimas qilib qo‘yaman,
Butun odamzod sendan hazar qiladigan bo‘ladi.
16 Vajohating seni aldadi,

Takabburliging seni ahmoq qildi.
Sen–ku tik qoyada yashaysan,
Azim choʻqqilarni egallagansan.
Burgut kabi iningni baland qurgan boʻlsang ham,
Seni u yerdan tortib tushiraman.”
Egamizning kalomi shudir.

17-18 Egamiz shunday demoqda: “Edomning boshiga tushadigan kulfatlar shu qadar dahshatli boʻladiki, bu yurtning oldidan oʻtgan har bir kishi uning ayanchli ahvolidan vahimaga tushib, qotib qoladi. Sadoʻm, Gʻamoʻra* va ularning atrofidagi shaharlar qanday vayron boʻlgan boʻlsa, Edom ham xuddi shunday vayron boʻladi. U yerda hech kim yashamaydi.
19 Men, Iordan chakalakzoridagi arslonday, yaylovdagi qoʻylarga hujum qilaman. Bir zumda Edom xalqini oʻz yurtidan haydab chiqaraman. Oʻzim xohlagan insonni u yerga bosh qilaman. Axir, kim Menga teng kela oladi?! Kim Mendan hisobot soʻray oladi?! Qaysi choʻpon Menga qarshi tura oladi?! 20 Shunday ekan, Edom xalqiga qarshi tuzgan rejalarimni eshitib qoʻying. Temon aholisiga qilgan niyatlarimga quloq tuting: yirtqichlar suruvdagi qoʻzichoqlarni sudrab ketadi. Qilmishlari dastidan yam–yashil yaylovlari payhon boʻladi. 21 Edom gursullab qulaganda, yer yuzi larzaga keladi. Xalqning dodu voylari Qizil dengizgacha* eshitiladi. 22 Qaranglar! Dushman burgutday Bozraxga hujum qilmoqda. Qanot kerib shahar uzra parvoz etmoqda. Oʻsha kuni Edom lashkari dard tutgan ayol kabi vahimaga tushadi.”

Damashq hukm qilinadi

23 Quyidagi xabar Damashq haqidadir:

Egamiz shunday deydi:
“Xomat bilan Arpad ahli* shum xabar eshitishadi,
Shuning uchun ular sarosimaga tushadi.
Yuragiga tushgan gʻulgʻula bosilmaydi,
Joʻshqin dengiz kabi tinchlanmaydi.
24 Damashq madorsiz qoladi,
Orqaga qochmoqchi boʻladi,
Butun vujudini vahima qamrab oladi.
Dard tutgan ayolday azobu qiynoqda qoladi.
25 Evoh, mashhur shahar tark etiladi!
Quvonch makoni* tashlab ketiladi!
26 Oʻsha kuni yigitlari maydonlarda oʻladi,
Hamma sipohlari halok boʻladi,
— deb aytmoqda Sarvari Olam. —
27 Men Damashq devorlariga oʻt qoʻyaman,
Olov Banhadad qal’alarini yondirib tashlaydi.”

Kedar va Xazor hukm qilinadi

28 Bobil shohi Navuxadnazar* magʻlub qilgan Kedar va Xazor* shohliklari haqida Egamiz shunday deydi:

“Qani bo‘ling, Kedarga hujum qiling!
O‘sha sharq qabilalarini halok eting!
29 Qo‘lga kiriting chodirlariyu qo‘ylarini,
Chodir pardalariyu bor bisotini.
Tuyalarini o‘zingizga oling.
Odamlar baqiradi:
«Atrofni dahshat qamradi!»

30 Ey Xazor aholisi!
Qoching! Uzoqlarga bosh olib keting.
Chuqur g‘orlarda yashirinib oling,
— deb aytmoqda Egamiz. —
Zero, Bobil shohi Navuxadnazar
Sizlarga qarshi bir reja tuzdi,
Sizlarni halok etish niyatida yuribdi.

31 Ey Bobil lashkarlari,
Qani, xotirjam bo‘lgan xalqqa hujum qilinglar!
Bexatar yashayotganlarga tashlaninglar!
— deb aytmoqda Egamiz. —
Ular sahroda yolg‘iz yashaydilar,
Shaharlarining na darvozalari, na tambalari bor.
32 Ularning tuyalarini o‘lja olasiz,
Mol podalarini qo‘lga kiritasiz.
Sochini oldirib yurgan* Xazorliklarni
Men to‘rt tomonga tarqatib yuboraman.
Ularning ustiga har yoqdan kulfat yog‘diraman,
— deb aytmoqda Egamiz. —
33 Xazor to abad tashlandiq bo‘lib qoladi,
Chiyabo‘rilar makoniga aylanadi.
U yerda hech kim yashamaydi,
U joylarga hech kim borib o‘rnashmaydi.”

Elam hukm qilinadi

34 Yahudo shohi Zidqiyo* hukmronligining ilk davrida Egamiz Yeremiyo payg‘ambarga Elam yurti* to‘g‘risida O‘z so‘zini ayon qildi.

35 Sarvari Olam demoqda: “Men Elam merganlarini nobud qilaman. Qudratining manbaini sindiraman. 36 Ular ustiga to‘rt tomondan dushman solaman. Hammasini yer yuzining to‘rt tomoniga tarqatib yuboraman. Elamliklar qochib bormagan biron–bir yurt qolmaydi.

37 Men Elamni qasdi bor dushmanlari qarshisida sarosimaga solaman. Qaynagan g‘azabimni ustilariga kulfat qilib yog‘diraman, — deb aytmoqda Egamiz. — Ortidan qilich solib, hammasini bitta qoldirmay qirib tashlayman. 38 Ularning shohini a’yonlari bilan birga yo‘q qilaman. Elamda O‘z taxtimni o‘rnataman.

39 Ammo keyinchalik Men Elam xalqini yana farovonlikka erishtiraman.” Egamizning kalomi shudir.

50–BOB

Bobil mag‘lub bo‘ladi

1 Egamiz Bobil yurti, Bobilliklarning* diyori xususida Yeremiyo payg‘ambar orqali
shunday so‘zlarni aytdi:

2 “Xalqlarga e’lon qiling, xabar yetkazing!
Bayroq ko‘tarib, yangilikni ayting.
Hech narsa yashirmay shunday jar soling:
«Bobil qulaydi,
Ularning xudosi Bel sharmanda bo‘ladi,
Xudosi Mardux* parcha–parcha qilinadi.
Bobil butlari xor bo‘ladi,
Sanamlari sindirib tashlanadi.»

3 Shimoldagi bir xalq Bobil ustiga bostirib keladi. Ular butun yurtni vayron qilishadi.
U yerda hech kim yashamaydigan bo‘ladi. Odamlar va hayvonlar u yerdan qochib
ketadi.”

Isroil xalqi surgundan qaytib keladi

4 Egamiz shunday demoqda: “O‘sha kunlar kelganda, Isroil xalqi Yahudo xalqi bilan
birga ko‘z yosh to‘kib, Egasi Xudoga intiladigan bo‘ladi. 5 Ular yuzlarini Quddus* tomon
buradilar, u yerga olib boradigan yo‘lni so‘rab–surishtiradilar. Egasiga bog‘lanib
qoladilar, U bilan unutilmas, abadiy bir ahd tuzadilar.
6 Mening xalqim adashgan qo‘ylarga o‘xshaydi. Cho‘ponlari ularni yo‘ldan adashtirib,
tog‘larga haydab yubordilar. Ular tog‘laru qirlarda darbadar kezib, oromgohini
unutdilar. 7 Qo‘ylarimga duch kelgan odam ularni yedi. Dushmanlar shunday dedi:
«Bizning aybimiz yo‘q. Ularning o‘zlari Egasiga qarshi gunoh qildi. Egasi ular uchun asil
yaylovday edi, ota–bobolari Egasiga umid bog‘lagan edi.»
8 Ey Isroil xalqi, Bobildan qochib chiqing! Bobilliklarning yurtini tark eting! Suruvni
boshqarib ketayotgan serkaday birinchi bo‘lib chiqing. 9 Mana, Men shimoldagi qudratli
xalqlarni Bobilga qarshi qo‘zg‘atyapman. Ular saf tortib, Bobilga hujum qiladilar. Bobil
jangda mag‘lub bo‘ladi. Dushman o‘qlarining hammasi to‘g‘ri nishonga tegadi, ularning
o‘qlari merganlarning o‘qlaridaydir. 10 Bobil* talon–taroj qilinadi, hamma talonchilari
o‘ljaga to‘yadi.” Egamizning kalomi shudir.

Bobil qulaydi

11 Ey Xudoning xalqini talagan Bobilliklar!
Sizlar sevinib, xursand bo‘lyapsizlar,
Yaylovdagi buzoqday* shodon sakrayapsizlar,
Otlar kabi kishnayapsizlar.
12 Ammo bilib qo‘ying, ona yurtingiz xor bo‘ladi,
Siz tug‘ilgan yurt oyoq osti qilinadi.
Yurtingiz xalqlar orasida arzimas bo‘lib qoladi,
Cho‘l, qaqroq yer, sahroga aylanadi.
13 Egamiz Bobilga qahrini sochadi,

U yerda hech kim yashamaydi.
Butunlay tashlandiq bo‘lib qoladi.
U yerdan kim o‘tsa yoqasini ushlaydi,
Bobil xarobalarini ko‘rib qotib qoladi.
14 Ey merganlar!
Bobil atrofiga saf torting!
Unga qarshi o‘q uzing!
O‘qingizni sira ayamang.
Axir, Bobil Egamizga qarshi gunoh qildi.
15 Har yoqdan Bobilga shunday deb xitob qiling:
“Bobil taslim bo‘lyapti,
Istehkomlari yiqilyapti,
Devorlari o‘pirilib tushyapti.”
Egamizning qasosidir bu.
Sizlar ham Bobildan o‘ch oling,
Qilmishlarini o‘z boshiga qaytarib soling.
16 Bobildagi urug‘ sepuvchilarni yo‘q qiling,
O‘rim mavsumida o‘roqchilarni o‘ldiring.
Dushman qilichidan hamma qochsin,
U yerdagi asirlar o‘z xalqi orasiga qaytsin,
Ona yurtiga qochib borsin.

Isroil tiklanadi

17 Isroil xalqi* sherlar har yoqqa tumtaraqay qochirib yuborgan qo‘ylarga o‘xshaydi. Ilk bor Isroilga Ossuriya shohi* tashlangan edi, Isroilning suyaklarini esa Bobil shohi Navuxadnazar* g‘ajigan edi. 18 Shu sababdan Isroil xalqining Xudosi — Sarvari Olam shunday demoqda: “Men Ossuriya shohini qanday jazolagan bo‘lsam, Bobil shohini va uning yurtini ham xuddi shunday jazolayman. 19 Isroilni o‘z yayloviga qaytarib olib kelaman, ular Karmil tog‘ining yon bag‘irlarida va Bashanda o‘tlab yuradilar. Efrayim qirlarida va Giladda* yurib, qorinlarini to‘yg‘izadilar. 20 O‘sha kunlar kelganda Isroildan biron gunoh topilmaydi, Yahudo ham benuqson bo‘ladi, — deb aytmoqda Egamiz. — Zero, Men asragan xalqimning gunohlarini kechiraman.”

Xudo Bobilni hukm qiladi

21 Egamiz shunday demoqda:
“Marotayim* yurtiga bostirib boringlar,
Paxo‘d* aholisiga hujum qilinglar,
Ularni tamomila qirib bitiringlar.
Sizlarga Men buyurgan hamma ishni bajaringlar.
22 Bobildan jang shovqin–suroni ko‘tarilmoqda,
Hamma yoq xarobaga aylanmoqda.
23 Bobil butun dunyoni bolg‘aday parcha–parcha qildi,
Eh, endi o‘zi sinib parchalanib ketdi!
Bobilning ahvoli xalqlarni vahimaga soldi.
24 Ey Bobil, Men senga tuzoq qo‘ygandim,
Bilmasdan tuzog‘imga tushib qolding.

Seni fosh qildim, qo‘lga oldim.
Axir, sen Menga qarshi chiqqan eding.”

25 Egamiz O‘z aslahaxonasini ochdi,
G‘azab qurollarini olib chiqdi.
Sarvari Olam — Rabbiy
Bobilliklar yurtida bir ish qilishga shaylandi.
26 Uzoq yurtlardan Bobilga hujum qiling!
Omborxona eshiklarini buzing!
Bobilni don uyumlariday yig‘ing,
Hammasini yo‘q qiling.
Undan asar ham qolmasin!
27 Yosh jangchilarini o‘ldiring,
Hammasini qirib tashlang.
Bobilning holiga voy, uning kuni bitdi,
Jazo oladigan vaqti yetdi.

28 Bobildan qochib kelganlarning gaplarini eshiting. Ular Quddusga kelib, Egamiz Xudo O‘z Ma’badi uchun qasos olganini e’lon qilishmoqda.

29-30 Egamiz shunday demoqda: “Bobilga hujum qilish uchun kamonkashlarni yig‘inglar. Shaharni qurshovga olinglar, bironta odam qochib keta olmasin. Bobilliklarning qilgan ishiga yarasha jazosini beringlar, qilmishlarini o‘z boshiga qaytarib solinglar. Zero, ular Menga, Isroil xalqining Muqaddas Xudosiga nisbatan takabburlik qildilar. O‘sha kuni Bobilliklarning yigitlari maydonlarda o‘lib ketadi, hamma sipohlari halok bo‘ladi.”

31 Sarvari Olam — Rabbiy shunday demoqda:
“Ey takabbur Bobil, Men senga qarshi chiqyapman!
Sening kuning bitdi,
Seni jazolaydigan vaqt yetdi.
32 Bu takabbur xalqing qoqilib tushadi,
Seni hech kim turg‘izib qo‘ymaydi.
Men hamma shaharlaringga o‘t qo‘yaman,
Olov atrofdagi hamma narsani yondirib yuboradi.”

33 Sarvari Olam shunday demoqda: “Isroil va Yahudo xalqlari zulm iskanjasida qolishdi. Dushmanlarning hammasi ularni qattiq tutib turibdi. Ularni qo‘yib yuborishdan bosh tortyapti. 34 Ammo Men ularning qudratli Qutqaruvchisiman, Mening nomim Sarvari Olamdir. Men xalqimni astoydil himoya qilaman, ularning yurtiga orom beraman. Bobilliklarni esa tinchlikdan mahrum qilaman.”

35 Egamiz shunday demoqda:
“Bobilliklarga o‘lim!
Butun Bobil aholisiga,
A’yonlariyu donishmandlariga o‘lim!

36 Folbinlariga o‘lim!
Naqadar ahmoqdir ular!
Jangchilariga o‘lim!
Naqadar vahimaga tushgan ular!
37 Otlariyu jang aravalariga o‘lim!
Yollangan jangchilariga o‘lim!
Ayollarga o‘xshagan zaifdir ular!
Zeb–ziynatu boyliklarini yo‘q qiling,
Talang, o‘lja qilib oling.
38 Butun yurtga qurg‘oqchilik kelsin!
Daryolari qurib ketsin.
Zero, bu yurt butlar makoni bo‘ldi,
Vahimaga solgan o‘sha butlar dastidan
Odamlari aqldan ozdi.

39 Shuning uchun Bobilda sirtlonlaru tuyaqushlar yashaydi. U yer yovvoyi dasht hayvonlarining makoniga aylanadi. Inson zoti endi u yerda hech qachon yashamaydi, Bobil to abad bo‘m–bo‘sh bo‘lib qoladi. 40 Sado‘m, G‘amo‘ra* va ularning atrofidagi shaharlar qanday vayron bo‘lgan bo‘lsa, Bobil ham shunday vayron bo‘ladi. U yerda hech kim yashamaydi.” Egamizning kalomi shudir.

41 Ana, shimoldan olomon kelmoqda.
Dunyoning chetidan
Buyuk bir xalqu ko‘p shohlar qo‘zg‘almoqda.
42 Kamonu nayzalar bilan qurollangan ular,
Shafqat qilmaydigan zolimdir bu odamlar.
Ular otlarini yeldiradi,
Dengizday guvullab keladi.
Ey qiz* Bobil, ular senga qarshi chiqadi,
Jang qilgani saf tortishadi.

43 Bobil shohi bu xabarni eshitdi,
Qo‘llarida mador qolmadi.
Dard tutgan ayol kabi
Azobu iztirobda qoldi.

44 Egamiz shunday deydi: “Men, Iordan chakalakzoridagi arslonday, yaylovdagi qo‘ylarga hujum qilaman. Bir zumda Bobil xalqini o‘z yurtidan haydab chiqaraman. O‘zim xohlagan insonni u yerga bosh qilaman. Axir, kim Menga teng kela oladi?! Kim Mendan hisobot so‘raydi?! Qanday cho‘pon Menga qarshi tura oladi?! 45 Shunday ekan, Bobil yurtiga qarshi Men tuzgan rejalarni eshitinglar. Bobil xalqi to‘g‘risida qilgan niyatlarimga quloq tutinglar: yirtqichlar suruvdagi qo‘zichoqlarni sudrab ketadi. Qilmishlari dastidan yam–yashil yaylovlari payhon bo‘ladi. 46 Bobil gursullab qulaganda, yer yuzi larzaga keladi, xalqning dodu voylari olisdagi ellarga eshitiladi.”

51–BOB

Egamiz Bobilni hukm qilishda davom etadi

1 Egamiz shunday demoqda:
“Men Bobilga va uning aholisiga* qarshi,
Halokat keltiradigan shamol qo‘zg‘ataman.
2 Bobilga ajnabiylarni jo‘nataman.
Ular bug‘doyni sovurganday,
Bobilni sovurib tashlaydilar.
Uning bor–yo‘g‘ini shilib oladilar.
Kulfat kuni unga har yoqdan yopiriladilar.
3 Bobil kamonkashlarining sovut kiyishiga,
O‘q uzishlariga imkon bermang.
Bobil yigitlariga rahm qilmang!
Lashkarini tamomila qirib bitiring.
4 Ular Bobil* yurtida chopib tashlanadilar,
Ko‘chalarida og‘ir yaralanib yotadilar.”

5 Isroil va Yahudo xalqlari
Sarvari Olam oldida gunoh qilgan bo‘lsalar ham,
Xudosi ularni tark etmadi.
Isroil xalqining Muqaddas Xudosi ulardan yuz o‘girmadi.

6 Bobildan qochib chiqinglar!
Joningizni qutqarib qolinglar!
Bobilning gunohi tufayli qirilib ketmanglar,
Zotan, Egamiz Bobildan o‘ch olmoqda,
Qilgan qilmishlariga yarasha jazosini bermoqda.
7 Bobil Egamizning qo‘lidagi oltin kosaday edi,
Bobil butun dunyoni mast* qildi.
Dunyo xalqlari kosadagi sharobdan ichdi,
Hammasi aqldan ozdi.
8 Bobil birdaniga qulaydi, vayron bo‘ladi.
U uchun faryod qiling!
Yaralariga malham surting,
Zora tuzalib qolsa!
9 Bobilda yashagan ajnabiylar aytishadi:
“Bobilni tuzatmoqchi edik, ammo u tuzalmadi.
Endi uni tashlab ketaylik,
Har birimiz yurtimizga qaytib ketaylik.
Axir, Bobilning jazosi boshidan oshdi,
Ko‘kdagi bulutlargacha yetib bordi.”

10 Isroil xalqi deydi:
“Egamiz bizni oqladi.

Yuringlar, Quddusga* boraylik,
Egamiz Xudoning buyuk ishlarini
U yerda e’lon qilaylik.”

11 Egamiz O‘z Ma’badi uchun Bobilliklardan o‘ch olmoqchi bo‘ldi. U butun Bobil yurtini vayron qilishni rejalashtirib qo‘ygan edi. Rejasini amalga oshirish uchun Midiya shohlarini* Bobilga qarshi qo‘zg‘atib, shunday degan edi:

“O‘tkirlang o‘qlarni!
To‘ldiring o‘qdonlarni!”

12 Bobilga qarshi bayroq ko‘taring.
Qo‘riqchilar safini kuchaytiring,
Soqchilar qo‘ying.
Pistirma qo‘yishga tayyor turing.
Egamiz rejalarini amalga oshiradi,
Bobilga qarshi aytganlarini bajaradi.
13 Ey serob suvlar bo‘yidagi shahar,
Boy xazinaga ega bo‘lgan shahar!
Sening kuning bitdi.
Hayoting ipi uzildi*.
14 Sarvari Olam O‘z nomi bilan qasamyod qilib dedi:
“Chigirtkaday* gala–gala dushmanni senga qarshi yuboraman.
Ular yurting uzra g‘olibona hayqiradi.”

Xudoga hamdu sano qo‘shig‘i

15 Egamiz qudrati ila yerni yaratdi,
Donoligi ila dunyoni bunyod etdi,
Idroki ila osmon gumbazini o‘rnatdi.
16 Uning ovozidan osmondagi suvlar gulduraydi,
U dunyoning to‘rt burchidan bulutlarni olib keladi.
Yomg‘ir yog‘dirganda chaqmoq chaqtiradi,
Omborlaridagi shamollardan estiradi.

17 Uning oldida hamma odamlar ahmoq va nodondir.
Zargarlar yasagan butlari tufayli sharmanda bo‘lishadi.
Yasagan sanamlari soxtadir, ularning joni yo‘q.
18 Bu betayin butlar aldamchidir.
Ularni jazolaganim zahoti yo‘q bo‘lishadi.
19 Yoqubning Xudosi esa unday emas.
Butun borliqni U yaratgan,
Isroil qabilasini O‘ziga mulk qilgan.
Uning nomi Sarvari Olamdir.

Egamizning bolg‘asi

20 Egamiz shunday deydi:
“Ey Bobil, sen Mening bolg‘am, urush qurolimsan.

Sen bilan ezdim Men xalqlarni,
Sen bilan parchaladim shohliklarni.
21 Sen bilan pachaqladim otlaru chavandozlarni,
Majaqladim jang aravalariyu aravakashlarni.
22 Sen bilan ezdim erkagu ayollarni,
Sen bilan urdim yoshu qarilarni,
Sen bilan o‘ldirdim yigitu qizlarni,
23 Sen bilan ezdim cho‘ponlaru ularning suruvlarini,
Sen bilan urdim dehqonlaru ularning ho‘kizlarini,
Sen bilan o‘ldirdim hokimlaru a’yonlarni.”

Bobilning jazosi

24 Egamiz shunday demoqda: “Quddusga qilgan barcha yovuzliklari uchun Bobilliklarni* va butun Bobil yurtini sizning ko‘zingiz oldida jazolayman.

25 Ey Bobil, sen tog‘day bo‘lib,
Butun dunyoni vayron qilding.
Shu bois Men senga qarshiman!
— deb aytmoqda Egamiz. —
Men senga qarshi qo‘l ko‘taraman,
Seni qoyalardan pastga dumalatib yuboraman,
Kuyib xarob bo‘lgan toqqa aylantiraman.
26 Sendan na tamal toshi,
Na poydevor uchun tosh olinadi.
Sen to abad tashlandiq bo‘lib qolasan.”
Egamizning kalomi shudir.

27 Bayroqni ko‘taring!
Xalqlarga burg‘u chaling!
Xalqlarni Bobilga qarshi urushga tayyorlang.
Ararat, Minnax va Ashkanoz shohliklarini*
Unga qarshi to‘plang.
Bobilga qarshi jang qiladigan lashkarboshini tayinlang,
Chigirtka galasiday ko‘p otlar keltiring.
28 Xalqlarni Bobilga qarshi urushga tayyorlang.
Midiya shohlarini, ularning hokimu a’yonlarini,
Ularning qo‘li ostidagi hamma yurtlarni
Bobilga qarshi safarbar qiling.
29 Butun dunyo dag‘–dag‘ titramoqda,
Zero, Egamiz O‘z rejasini amalga oshirmoqda.
Bobil vayron bo‘ladi,
Evoh, kimsasiz huvullab qoladi.
30 Bobil sipohlari jangdan voz kechishadi,
Qal’alarida pisib yotishadi.
Ularning madori qolmaydi,
Ayollarday zaif bo‘lib qolishadi.

Bobilning dushmani shahar binolariga o‘t qo‘yadi,
Shahar darvozalarini buzadi.
31 Chopar ketidan chopar yugurar,
Xabarchi ketidan xabarchi kelar.
Bobil shohiga shunday xabar yetkazmoqchi ular:
“Shahringiz quladi,
32 Daryoning kechuv joylari qo‘lga olindi,
To‘qaylarga o‘t qo‘yildi*,
Sipohlar sarosimaga tushdi.”

33 Isroil xalqining Xudosi — Sarvari Olam shunday demoqda:
“Qiz* Bobil xirmondagi bug‘doyga o‘xshaydi.
Tez orada o‘rim vaqti yetib keladi,
Hademay u yanchiladi*.”

34 Quddus aholisi shunday dedi:
“Bobil shohi Navuxadnazar* bizni g‘ajidi, ezdi,
Bizni bo‘m–bo‘sh idishday qilib qo‘ydi.
U ajdarhoday bizni yamladi,
Lazzatli narsalarimiz bilan qornini to‘yg‘izdi,
Keyin esa bizni tupurib tashladi.”
35 Quddus aholisi aytsin:
“Majaqlangan tanam* uchun Bobildan o‘ch olinsin”, deya.
Sion aholisi aytsin:
“To‘kilgan qonim uchun Bobilliklar jazolansin”, deya.

Egamiz Isroilga yordam beradi

36 Egamiz shunday demoqda:
“Men da’voingizni eshitib,
Sizni himoya qilaman.
Sizlar uchun o‘ch olaman.
Bobilning bulog‘ini quritaman,
Daryolarini suvsiz qoldiraman.
37 Bobilni bir uyum toshga aylantiraman,
Chiyabo‘rilarning makoni qilaman.
Bobilning ahvolidan odamlar dahshatga tushadi,
Uni ko‘rganlar qotib qoladi.
U yerda biron kimsa yashamaydi.

38 Bobilliklar sher kabi o‘kirishadi,
Sher bolalariday bo‘kirishadi.
39 Ayni qizishgan paytlarida
Ularga o‘tkir ichimlikdan ichiraman.
Ularni mastu* shodon qilaman.
So‘ng ular abadiy uyquga ketishadi,
Hech qachon uyg‘onishmaydi,

— deb aytmoqda Egamiz. —
40 Men ularni qo‘zichoq, qo‘chqor va takalarday
Qassob oldiga olib boraman.

Bobilning qismati to‘g‘risidagi ashula

41 Eha, Bobil* shahri quladi–ya!
Butun dunyo g‘ururi mag‘lub bo‘ldi–ya!
Uning qismatidan xalqlar dahshatga tushdi!
42 Dengiz suvlari Bobilni bosdi,
Shovqin to‘lqinlar uni qoplab oldi.
43 Ana, shaharlari xarob bo‘ldi,
Ular cho‘lu sahroga aylandi.
Endi u yerda hech kim yashamaydi,
Inson qadami u yerga yetib bormaydi.
44 Bobil xudosi Belni* Men jazolayman,
Yutganlarini og‘zidan chiqaraman.
Endi xalqlar uning oldiga oqib bormaydi,
Bobil devorlari qulab tushadi.

Xudo Bobildagi Isroil xalqiga xabar beradi

45 Ey xalqim, chiqib ket u yerdan!
Qochib qol Mening qahrimdan!
Joningni qutqargin!
46 Yurtdagi mish–mishlar sizni qo‘rqitmasin,
Yuragingizga g‘ulg‘ula solmasin.
Bir yil bir mish–mish bo‘ladi,
Keyingi yili boshqasi chiqadi.
Ha, yurtdagi zo‘ravonlik haqida mish–mish chiqadi,
Shohlar orasidagi urush haqida mish–mish tarqaladi.
47 Mana, shunday kun kelyaptiki,
Men Bobilning soxta xudolarini jazolayman.
Butun Bobil yurti sharmanda bo‘ladi,
Ko‘chalarida jasadlar yotadi.
48 Ha, Bobilga qarshi shimoldan
Qirg‘in keltiruvchi keladi.
Shunda Bobilning halokatidan
Yeru osmon shodlanadi,
U yerdagi barcha mavjudot xursand bo‘ladi,
— deb aytmoqda Egamiz. —
49 Axir, Bobil Isroil xalqining umriga zomin bo‘ldi,
Yer yuzidagi ko‘p xalqlarning boshini yedi,
Ana endi uning qilmishlari o‘zining boshiga yetdi.”

50 Ey qilichdan omon qolganlar!
O‘ylanmasdan qochinglar!
Olis yurtda Egamizni eslanglar.

Quddus haqida o‘ylanglar.
51 Sizlar aytasiz: “Sharmanda bo‘ldik.
Haqoratlar eshitdik.
Yuzimiz shuvut.
Axir, Egamiz uyining muqaddas xonalarini
Ajnabiylar oyoq osti qildi.”
52 Egamiz esa shunday demoqda:
“Mana, shunday kunlar kelyaptiki,
Men Bobilning soxta xudolarini jazolayman.
Butun yurt uzra
Yaradorlarning faryodlari eshitiladi.
53 Bobil osmonga chiqib olsa ham,
Baland qal’asini mustahkam qilsa ham,
Men unga qarshi qirg‘in keltiruvchini yuboraman.”
Egamizning kalomi shudir.

Bobil vayron bo‘ladi

54 Ana, Bobil xalqidan dodu faryod ko‘tarilmoqda,
Bobil yurtidan vayron–talqon sadolari kelmoqda.
55 Egamiz Bobilni vayron qiladi,
Shang‘illagan tovushini o‘chiradi.
Dushmanlar shiddatli to‘lqinlarday o‘kiradi,
Quloqni teshgudek qilib baqiradi.
56 Qirg‘in keltiruvchi Bobilga qarshi chiqadi,
Sipohlarini asirlikka oladi.
Kamonlarini sindiradi.
Axir, Egamiz jazolaydigan Xudodir,
U rosa Bobilning jazosini beradi.
57 Xudo Shohdir,
Sarvari Olamdir Uning nomi.
U shunday demoqda:
“Mast qilaman Bobil amaldorlariyu donishmandlarini,
Hokimlarini, a’yonlariyu jangchilarini.
Ular abadiy uyquga ketadilar,
Hech qachon uyg‘onmaydilar.”

58 Sarvari Olam shunday demoqda:
“Bobilning qalin devorlari yer bilan yakson qilinadi,
Baland darvozalari yondirib tashlanadi.
Ellar behuda tinkasini quritadi.
Xalqlarning ter to‘kib erishganlari olovga yem bo‘ladi.”

Yeremiyoning bashorati Bobilda ovoza qilinadi

59 Yahudo shohi Zidqiyo hukmronligining to‘rtinchi yili*. Shoh Zidqiyo Bobilga bormoqchi bo‘lib yo‘lga otlanganda, Yeremiyo payg‘ambar Neriyoning o‘g‘li, Maxsiyoning nevarasi Sarayoga ko‘rsatmalar berdi. Sarayo bu safarda javobgar bir

shaxs edi. 60 Yeremiyo o‘rama qog‘ozga* Bobilning boshiga tushadigan barcha kulfatlarni batafsil bayon qilib yozdirgan edi. 61 U Sarayoga shunday tayinladi:

— Bobilga borganingdan keyin, o‘rama qog‘ozdagi hamma so‘zlarni xalqqa baland ovozda o‘qib ber. 62 Keyin esa shunday xitob qil: “Ey Egam, Sen O‘zing bu joyni vayron qilaman, degansan. Bu yerda na odamlar, na hayvonlar yashaydi, bu joy to abad tashlandiq bo‘ladi, deb aytgansan.” 63 O‘rama qog‘ozni o‘qib bo‘lganingdan keyin, unga bir tosh bog‘lagin–da, Furot daryosining o‘rtasiga uloqtirib yubor. 64 Keyin shunday deb ayt: “Bobil ham shunga o‘xshab cho‘kib ketadi. Egamiz Bobilga yog‘diradigan kulfatlar tufayli Bobil hech qachon o‘nglanmaydi. Uning butun aholisi o‘ladi.”

Yeremiyoning bashoratlari tugadi.

52–BOB

Quddus qulaydi

1 Zidqiyo yigirma bir yoshida shoh bo‘ldi* va Quddusda o‘n bir yil hukmronlik qildi. Onasining ismi Xamutal bo‘lib, Libnalik Yeremiyoning* qizi edi. 2 Zidqiyo ham, Yohayiqim kabi, Egamiz oldida qabih ishlar qilgani uchun 3 Egamiz Quddus va Yahudo xalqidan g‘oyat g‘azablangan, oqibatda ularni O‘z huzuridan quvib yuborgan edi.

Zidqiyo Bobil shohiga qarshi isyon ko‘tardi. 4 Zidqiyo hukmronligining to‘qqizinchi yili o‘ninchi oyining* o‘ninchi kunida Bobil shohi Navuxadnazar* Quddusga qarshi bor lashkarini tortib kelib, shaharni qamal qildi. Shahar devori atrofida qamal inshootlari* yasatdi. 5 Shoh Zidqiyo hukmronligining o‘n birinchi yiligacha* shahar qamalda qoldi. 6 To‘rtinchi oyning* to‘qqizinchi kuni shaharda ocharchilik shu qadar kuchaydiki, xalq bir burda nonga zor bo‘ldi. 7 Bobilliklar* Quddus devorini yorib kirdilar. Ular Quddusni har tomondan qurshab olishgan bo‘lsalar–da, Yahudo sipohlari shoh bilan birga qochib ketdilar. Ular tunda saroyning bog‘i yaqinidagi ikki devor orasidagi darvozadan chiqib, Iordan vodiysi* tomonga qochgan edilar. 8 Ammo Bobil* sipohlari shohning orqasidan quvib, Yerixo tekisligida unga yetib oldilar. Butun lashkar esa shohni tashlab qochib ketdi.

9 Bobil sipohlari shoh Zidqiyoni ushlab, Xomat yurtidagi Rivlo shahriga*, Bobil shohi huzuriga olib keldilar. Bobil shohi Zidqiyoni hukm qildi. 10 Rivloda Zidqiyoning ko‘zi oldida hamma o‘g‘illarini, so‘ng Yahudo a’yonlarini qatl qildi. 11 Zidqiyoning esa ko‘zlarini o‘yib, uni kishanlab qo‘ydi. Bobil shohi uni o‘zi bilan Bobilga olib ketdi. Zidqiyo umrining oxirigacha zindonda yotdi.

Ma’bad vayron bo‘ladi

12 Bobil shohi Navuxadnazar hukmronligining o‘n to‘qqizinchi yili beshinchi oyining* o‘ninchi kunida Bobil shohi xizmatidagi qo‘riqchilar sardori Nabizaradon Quddusga kirdi. 13 U Egamizning uyiga, shoh saroyiga, har bir hashamatli imoratga, Quddusdagi hamma uylarga o‘t qo‘ydi. 14 Qo‘riqchilar sardori boshchiligida butun Bobil lashkari Quddus devorlarini yiqitdi. 15 Nabizaradon ba’zi qashshoqlarni, shaharda tirik qolganlarni, Bobil shohi tomonga o‘tgan qochoqlaru qolgan–qutgan hunarmandlarni* asir qilib olib ketdi. 16 Uzumchilik va dehqonchilik bilan mashg‘ul bo‘lsinlar deya, hech vaqosi yo‘q, qashshoq odamlardan ba’zilarinigina qoldirdi, xolos.

17 Bobilliklar Egamizning uyidagi bronza ustunlarni, aravalarni, bronza hovuzni* parchaladilar, bronzaning hammasini Bobilga olib ketdilar. 18 Egamizning uyida xizmat

paytida ishlatiladigan buyumlarni — qozonlarni, kuraklarni, qaychilarni, tog‘orachalar va kurakchalarni, barcha bronza ashyolarni ham olib ketdilar. 19 Qo‘riqchilar sardori Nabizaradon oltin va kumushdan yasalgan tog‘oralarni, olovkuraklarni, tog‘orachalarni, tovoqlarni, chiroqpoyalarni, kurakchalarni va sharob nazri uchun ishlatiladigan idishlarni ham olib ketdi. 20 Egamizning uyi uchun shoh Sulaymon yasattirgan ikkita ustunga, hovuzga, hovuz ostidagi o‘n ikkita buqaga va aravalarga* behisob bronza sarf qilingan edi. 21 Har bir ustunning balandligi 18 tirsak, tevaragi 12 tirsak* edi. Ustunlarning ichi kavak bo‘lib, devorlarining qalinligi to‘rt enli edi. 22 Ikkala ustunning tepasida bittadan ustunqosh bor edi. Ustunqoshlarning balandligi 5 tirsakdan*, atroflari bronzadan yasalgan to‘rsimon bezak va anor* tasviri bilan bezatilgan edi.
23 Ustunqoshning har bir tomoniga to‘qson oltita anor tasviri tushirilgan edi. To‘rsimon bezakdagi anorlarning soni hammasi bo‘lib yuzta edi.

Yahudo xalqi Bobilga surgun qilinadi

24 Qo‘riqchilar sardori Nabizaradon oliy ruhoniy Sarayoni, undan keyingi ruhoniy Zafaniyoni va uchta darvozabonni ham asirga oldi. 25 Quddusda qolgan sipohlarning lashkarboshisini, shohning yettita shaxsiy maslahatchisini, xalqni lashkar safiga yozgan lashkarboshining kotibini va xalqdan shaharda qolgan oltmish kishini ham bandi qildi.
26 Ularning hammasini Rivloga, Bobil shohi huzuriga olib keldi. 27 Bobil shohi ularni Xomat yurtida — Rivloda qatl qildi. Shunday qilib, Yahudo xalqi o‘z yurtidan surgun bo‘ldi.

28 Navuxadnazar surgun qilgan xalqning soni quyidagichadir: hukmronligining yettinchi yili* 3023 nafar yahudiyni, 29 o‘n sakkizinchi yili* Quddus aholisidan 832 nafar kishini, 30 yigirma uchinchi yili* qo‘riqchilar sardori Nabizaradon Yahudodan 745 nafar kishini surgun qildi. Hammasi bo‘lib surgun qilingan xalqning soni 4600 kishi edi.

31 Yahudo shohi Yohayixin Bobilga surgun qilinganiga o‘ttiz yetti yil bo‘lganda, Bobil taxtiga Evilmardux o‘tirdi*. Evilmardux o‘sha yilning o‘n ikkinchi oyi* yigirma beshinchi kuni Yahudo shohi Yohayixinga marhamat qilib, uni zindondan olib chiqdi. 32 Unga yaxshi munosabatda bo‘ldi, Bobilga surgun qilingan boshqa shohlardan ko‘ra, balandroq martaba berdi. 33 Shunday qilib, Yohayixin zindon kiyimlarini yechdi. Umr bo‘yi doimo Bobil shohining dasturxonidan taom yedi. 34 Umrining oxirigacha Bobil shohi tarafidan kundalik ehtiyoji har doim qondirildi.

IZOHLAR

1:1 *Onoto‘t shahri* — Quddusdan qariyb 5 kilometr shimoli–sharqda joylashgan edi.

1:2 *Yahudo* — Yahudo qabilasi Isroilning janubiy qismidagi eng katta qabila edi. Shoh Sulaymon vafotidan keyin shimoldagi o‘nta qabila janubdagi Yahudo va Benyamin qabilalaridan ajralib chiqdi (3 Shohlar 11:26-12:24 ga qarang). Yahudo va Benyamin qabilalari janubiy shohlik deb ataladigan bo‘ldi. Janubiy shohlikning poytaxti Quddus bo‘lib qolaverdi, ularning o‘z hukmdorlari bor edi. Eski Ahdning ba’zi parchalarida Yahudo so‘zi janubdagi ikkala qabilaga nisbatan ishlatilgan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi YAHUDO so‘ziga qarang.

1:2 *Yo‘shiyo Yahudoda hukmronlik qilgan davrning o‘n uchinchi yili* — miloddan oldingi 627 yil. Yo‘shiyo miloddan oldingi 640-609 yillarda hukmronlik qilgan.

1:3 *Yohayiqim davri* — miloddan oldingi 609-598 yillarda Yahudoda hukmronlik qilgan.

1:3 *Zidqiyo hukmronligining o‘n birinchi yili* — miloddan oldingi 586 yil. Zidqiyo miloddan oldingi 597-586 yillarda Yahudoda hukmronlik qilgan.

1:3 *beshinchi oy* — ibroniy kalendarining Av oyi nazarda tutilgan. Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan iyulning o‘rtasidan boshlanadi.

1:12 *Bodom shoxi Mening hushyor turishimni bildiradi* — ibroniychada *bodom* va *hushyor* so‘zlari o‘zaro ohangdosh. Bodom birinchi bo‘lib gullaydigan daraxt bo‘lgani uchun, Yahudoda bahor ramzi hisoblanardi. Xudoning “hushyor turishi” ham Uning “hukmi” ramzidir. Bundan anglashiladiki, Xudo ahdni buzgan sadoqatsiz xalqini hukm qilishga tayyor turibdi (Levilar 26:14-45, Qonunlar 28:15-68 ga qarang).

1:12 *Aytgan so‘zlarim* — Levilar 26:14-45, Qonunlar 28:15-68 ga qarang.

1:15 *shimoldagi shohliklarning barcha xalqlari* — Bobil va uning ittifoqdoshi lashkarlariga ishora (20:4-5, 39:1-3 ga qarang). Bobil shohligi Yahudo yurtidan sharqda joylashgan edi, lekin Bobil lashkarlari Yahudoga shimol tomondan hujum qiladi.

2:4 *Isroil* — shoh Sulaymonning vafotidan keyin Isroil xalqi ikki shohlikka bo‘linib ketdi (3 Shohlar 11:26-12:24 ga qarang). Shimoliy shohlik “Isroil” deb, janubiy shohlik esa “Yahudo” deb ataladigan bo‘ldi. Miloddan oldingi 722 yilda Ossuriyaliklar shimoliy shohlikka hujum qilib, uni batamom yo‘q qilib yubordilar. Yeremiyo davrida faqat janubiy shohlik, ya’ni Yahudo qolgan edi. Shu sababdan mazkur oyatda va Yeremiyo kitobining ko‘p joylarida “Isroil” so‘zi janubiy shohlik aholisiga nisbatan qo‘llanilgan. Biroq ayrim hollarda Yeremiyo bu so‘zni sobiq shimoliy shohlikka nisbatan yoki ikkala shohlikka nisbatan ham ishlatgan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi ISROIL va YAHUDO so‘zlariga qarang.

2:8 *Baal* — Kan’ondagi xalqlar sajda qilgan hosildorlik xudosi bo‘lib, erkak qiyofasida tasavvur qilingan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi BAAL so‘ziga qarang.

2:10 *Kipr* — ibroniycha matnda *Kittim*, Kiprning qadimgi nomi.

2:10 *Kedar* — Arabiston sahrosidagi yerlar.

2:16 *Nuf va Taxpanxas* — Misrning ikki shahri edi. Nuf Memfis nomi bilan ham ma’lum.

Memfis shahri Misr shimoliy hududining markazi bo‘lib, Misr tarixida birmuncha vaqt poytaxt ham bo‘lgan edi.

2:16 *...Sochingni qirib tashladilar* — ular Misr xalqiga qul bo‘lganlarining belgisi edi.

2:18 *Nil* — ibroniycha matnda *Shixor*, Nil daryosining sharqiy irmog‘i.

2:18 *Ossuriya* — qadimgi qudratli shohlik. Uning poytaxti Naynavo shahri hozirgi Iroqning shimolida joylashgan edi. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi OSSURIYA so‘ziga qarang.

2:18 *Nil suvidan...Furot suvidan ichish uchun* — ko‘chma ma’nodagi gap bo‘lib, Isroil xalqi Misr va Ossuriya bilan ittifoq tuzmoqchi bo‘lganiga ishora qiladi. Ular Xudoga ishonmay o‘sha xalqlarning yordamiga suyangan edilar (yana shu bobning 13–oyatiga qarang).

2:20 *Har bir baland tepalikda...fohishaday yotding* — Kan’ondagi xalqlarning udumiga ko‘ra, sajdagohlar tepaliklarda yoki sersoya daraxtlar ostida joylashgan edi. O‘sha paytlarda butparast xalqlar o‘z sajdagohlarida diniy vazifalardan birini fahsh orqali bajarardilar. Butparast xalqlarning udumlariga ko‘ra, odamlar fohishalar va fohishlar bilan jinsiy aloqa qilish orqali o‘z xudolariga topinardilar, xudolaridan farovonlik ato qilishni so‘rardilar. Lekin Egamiz Isroil xalqiga bu yo‘l bilan sajda qilishni qat’iyan man etgan (Qonunlar 23:17-18 ga qarang).

2:23 *Vodiyda qilgan ishlaring* — Quddus shahridan janubda joylashgan Xinnum soyligiga ishora. Odamlar u yerda xudo Baal va xudo Mo‘laxga sig‘inib, hatto o‘z farzandlarini ham qurbonlik qilishardi (7:31-32, 19:1-6, 32:35 ga qarang).

2:27 *...yog‘ochga...Toshga...* — xalq sig‘ingan va madad kutgan butlarga ishora.

3:1 *Bunday bema’nigarchilik yurtni harom qilib yubormaydimi?!* — Qonunlar 24:1-4 ga qarang.

3:2 *Sen fohishalik qilmagan biror joy qoldimi?!* — 2:20 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

3:6 *Shoh Yo‘shiyo davrida* — 1:2 ning ikkinchi izohiga qarang.

3:6 *Isroil* — shimoliy shohlikning aholisi nazarda tutilgan (2:4 izohiga qarang).

3:6 *...u fohishalik qildi* — 2:20 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

3:7-8 *Men sadoqatsiz Isroilga taloq xatini berib, jo‘natib yubordim* — Xudo Isroil xalqini jazolaganiga ishora. Miloddan oldingi 722 yilda Ossuriyaliklar Isroilga, ya’ni shimoliy shohlikka hujum qilib, poytaxti Samariyani zabt etdilar. So‘ng Isroil xalqining aksariyat qismini Ossuriyaga surgun qildilar (4 Shohlar 17:1-6 ga qarang). Shunday qilib, shimoliy shohlik barham topdi.

3:14 *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion*. Eski Ahddagi she’riy parchalarda va payg‘ambarlar bitiklarida Sion so‘zi ko‘pincha Quddus shahriga yoki Xudoning xalqiga nisbatan ishlatilgan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi SION so‘ziga qarang.

3:16 *Ahd sandig‘i* — Xudo O‘z xalqi orasida ekanligining ramzi. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi AHD SANDIG‘I iborasiga qarang.

3:16 *...Mening Ahd sandig‘im...yangisini yasashmaydi* — Bobilliklar miloddan oldingi

586 yilda Quddusni bosib olganlarida Ahd sandig‘ini yo‘q qilib yuborgan yoki o‘zlari bilan olib ketgan bo‘lishlari mumkin.

4:4 *...Yuragingizni sunnat qiling* — sunnat Xudoning Ibrohim va uning avlodi bilan qilgan ahd belgisi edi (Ibtido 17:9-14 ga qarang). Isroil xalqi Xudoga bo‘lgan sadoqatini va Uning amrlariga itoat qilish istagini ko‘rsatish uchun sunnat qilinardilar. Bu oyatdagi “yuragingizni sunnat qiling” iborasi ko‘chma ma’noda ishlatilib, tuzilgan ahdning tashqi belgisi bo‘lgan jismoniy sunnat yetarli emasligini ko‘rsatadi. Mazkur iborada Xudoga chin yurakdan sodiq va itoatkor bo‘lishga urg‘u beriladi.

4:6 *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion* (shu bobning 31–oyatida ham bor). 3:14 izohiga qarang.

4:6 *shimoldan* — Bobil yurti nazarda tutilgan (1:15 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang).

4:8 *...Qanorga o‘ranib olinglar* — qanor dag‘al qoramtir mato bo‘lib, echki yoki tuya junidan to‘qilgan. Qanorga o‘ranib olish umidsizlikni va qayg‘uli holatni ifodalaydi. Ko‘pincha bu harakat Xudodan kechirim so‘rab ibodat qilish va Undan madad tilash bilan birgalikda amalga oshirilgan.

4:11 *garmsel* — hosilga katta ziyon keltiradigan issiq shamol. Bu o‘rinda majoziy ma’noda ishlatilib, Xudoning hukmini bildiradi.

4:15 *...Dan shahridan...Efrayim qirlaridan...* — Dan shahri Efrayim qirlaridan shimolda joylashgan bo‘lib, Isroil chegarasining eng shimoliy nuqtasini tashkil qilardi. Bobilliklar Quddusga hujum qilish uchun, dastavval Dan shahrini, so‘ng Efrayim qirlarini bosib olishlari kerak edi (shu bobning 6–oyatiga qarang).

4:30 *O‘ynashlaring* — Yahudo xalqining ittifoqdoshlariga ishora.

4:31 *Qiz* — shahar yoki yurt ahliga nisbatan qo‘llangan she’riy usul.

5:5 *boylar* — yoki *yo‘lboshchilar*.

5:31 *o‘zlaricha* — yoki *ularga qo‘shilishib*.

6:1 *Taxuva shahri...Bayt–Xakerem shahri...* — Taxuva shahri Quddusdan qariyb 16 kilometr janubda, Bayt–Xakerem shahri 3 kilometr janubda joylashgan edi. Shimol tomondan bostirib kelayotgan Bobil qo‘shinlari avval Quddusga, so‘ng bu shaharlarga hujum qilishlari kerak edi. 1:15 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

6:2 *Qiz* — 4:31 izohiga qarang.

6:2 *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion* (shu bobning 23–oyatida ham bor). 3:14 izohiga qarang.

6:6 *Daraxtlarini kesinglar...* — kesilgan daraxtlardan qamal inshootlari va devorteshar qurollar yasalgan (52:4 oyatga va 33:4 ning izohiga qarang).

6:6 *...Quddus devoriga qiyalatib tuproq uyinglar* — qadimgi davrlarda dushmanlar devor bilan o‘ralgan shaharga hujum qilayotganlarida, ko‘pincha devorga qiyalatib tuproq uyganlar. Shu yo‘l bilan ular shaharni himoya qilayotgan xalqqa hujum qilish uchun devorni buzishga yoki oshib o‘tishga qulay imkoniyat yaratganlar.

6:10 *quloqlari yopiq* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *quloqlari sunnatsiz*. Bu ibora “ular Xudoga quloq solishni va itoat etishni istamaydi” degan majoziy ma’noni

ifodalaydi (4:4 izohiga qarang).

6:17 *qo‘riqchilar* — Xudo O‘z xalqini ogohlantirib, tavba qilishga undash uchun yuborgan payg‘ambarlarga ishora.

6:20 *Shava yurti* — Arabiston yarim orolining janubi–g‘arb tomonida bo‘lgani ehtimoldan holi emas. Shava malikasi shoh Sulaymonga hadyalar olib kelgan edi (3 Shohlar 10:1-13 ga qarang).

6:22 *shimoldagi yurt* — Bobil nazarda tutilgan (1:15 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang).

6:26 *Qanorga o‘ranib, kulga belangin* — qanor dag‘al qoramtir mato bo‘lib, echki yoki tuya junidan to‘qilgan. Qanorga o‘ranib olish va kulga belanish umidsizlikni va qayg‘uli holatni ifodalaydi. Ko‘pincha bu harakat Xudodan kechirim so‘rab ibodat qilish va Undan madad tilash bilan birgalikda amalga oshirilgan.

7:10 *uyim* — ya’ni Ma’bad (shu bobning 1-4–oyatlariga qarang).

7:12 *Shilo‘ shahri* — Quddusdan qariyb 32 kilometr shimolda joylashgan. Yoshua davridan tortib Shomuil davriga qadar Muqaddas chodir va Ahd sandig‘i Shilo‘da bo‘lgan edi (Yoshua 18:1, Hakamlar 18:31, 1 Shohlar 1:3, 4:3 ga qarang). Shomuil davrida Filistlar Ahd sandig‘ini qo‘lga kiritdilar (1 Shohlar 4:1-11 ga qarang). Arxeologik topilmalarning isbotlashicha, Filistlar Shilo‘ shahrini vayron qilganlar. Bu shahar Isroil xalqining sajda markazi bo‘lishiga qaramay, Xudo tomonidan qattiq jazolandi, chunki Isroil xalqi Xudoning amrlariga rioya qilmagan edi (Zabur 77:56-64 ga qarang).

7:15 *Efrayim* — Efrayim qabilasi Isroilning shimoliy qismidagi eng katta va nufuzli qabila bo‘lgani bois, Eski Ahdning ba’zi o‘rinlarida Efrayim degan nom Isroilga, ya’ni shimoliy shohlikka nisbatan ishlatilgan. Bu shohlikning poytaxti Samariya edi. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi EFRAYIM so‘ziga qarang.

7:18 *samo qirolichasi* — Kan’ondagi xalqlar sajda qilgan hosildorlik va urush xudosi bo‘lgan Ashtaret nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin. Ashtaret ayol qiyofasida tasavvur qilingan.

7:21 *…kuydiriladigan qurbonliklaringizning go‘shtini ham o‘zlaringiz yeyaveringlar* — qonunga ko‘ra, ruhoniylar yoki sajda qiluvchilar deyarli hamma qurbonliklarning go‘shtini tanovul qilishlari mumkin edi. Lekin kuydiriladigan qurbonlik butunligicha olovda kuydirilardi. Xalq Xudoga itoat qilmagani uchun qurbonliklarning hech qanday ahamiyati qolmagan edi. Xudo qurbonliklarning befoyda ekanligini va ularni qabul qilmasligini ta’kidlamoqchi bo‘lib, kinoya qilib “kuydirilgan qurbonliklaringizning go‘shtini ham o‘zlaringiz yeyaveringlar” deb aytyapti.

7:29 *Sochingizni qirib tashlang* — sochni oldirish umidsizlikni va qayg‘uli holatni ifodalaydi.

7:31 *Xinnum soyligi* — Quddus shahridan janubda joylashgan. Soylik — ikki adir oralig‘idagi pastlik. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi SOYLIK so‘ziga qarang.

7:31 *sajdagoh* — ibroniycha matnda *bamax*, ya’ni “tepalik”. Kan’on xudolariga topinadigan joylar *bamax* deb atalardi. Odatda bu sajdagohlar tepaliklarda joylashgan bo‘lib, u yerda Kan’on xudolarining tasvirlari va qurbonliklar keltirish uchun qurbongoh

bo‘lardi.

8:7 *Kaptar, qaldirg‘ochu turnalar* — ibroniycha matnda aytib o‘tilgan bu qushlar qanday qush ekanligi bahsli.

8:16 *…dushman Dan shahriga yetib keldi…* — 4:15 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

8:17 *ilonlar…zaharli ilonlar* — dushmanlar nazarda tutilgan. Xudo bu so‘zlar orqali Isroil xalqining ota–bobolarini qay tarzda jazolaganiga, ular orasiga zaharli ilonlar yuborganiga ishora qilmoqda (Sahroda 21:4-6 ga qarang).

8:19 *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion*. 3:14 izohiga qarang.

8:22 *Gilad* — Iordan daryosining sharq tomonidagi bu o‘lka dorivor o‘simliklari bilan mashhur edi (Ibtido 37:25 ga qarang).

9:4 *yolg‘onchi* — ibroniycha matnda bu so‘z *Yoqub* ismiga ohangdosh. Isroil xalqining bobokaloni Yoqub yoshligida akasi Esovni aldagan edi (Ibtido 27:36 ga qarang).

9:15 *…achchiq o‘t…zaharli suv…* — iztirobu alamga ishora qilayotgan ko‘chma ma’nodagi ibora.

9:17 *Yig‘ichi ayollar* — qadimgi Isroilda ba’zan dafn marosimlari paytida dod–faryod qilib, aytib yig‘lash uchun yig‘ichi ayollar yollanardi.

9:19 *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion*. 3:14 izohiga qarang.

9:25 *yuragi sunnat qilinmagan odamlar* — ya’ni Xudoga chin yurakdan sadoqatli va itoatkor bo‘lmagan odamlar (4:4 izohiga qarang).

9:26 *…sochini oldirib yuradigan…* — bu odat butparast xalqlarga xos edi. Xudo Isroil xalqiga sochni oldirishni qat’iyan man etgandi (Levilar 19:27 ga qarang).

9:26 *…Misrliklarni…cho‘l qabilalarining hammasini…* — oyatda qayd etilgan bu xalqlarning hammasi Yahudo xalqiga qo‘shni bo‘lib, ular singari sunnat qilinardi. Biroq barhayot Xudoga sajda qilishmasdi.

10:8 *Donishmandlariyu shohlari…* — yoki *Xalqlar…*. Ibroniycha matnda *Ular…*.

10:11 Asl matnda bu oyat ibroniy tilida emas, oramiy tilida yozilgan.

10:22 *shimoldan* — Bobil yurti nazarda tutilgan (1:15 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang).

11:5 *sut va asal oqib yotgan yurt* — nihoyatda hosildor yerni bildiruvchi ibora. Mo‘l–ko‘l sut — mol uchun ko‘m–ko‘k yaylovlarning ko‘pligini bildiradi. Asal — xurmodan olinadigan quyuq, shirin murabboga ishora bo‘lishi mumkin. Murabboning mo‘lligi yaxshi hosil beradigan yerni bildiradi.

11:10 *Isroil xalqi* — shimoliy shohlikning aholisi nazarda tutilgan (2:4 izohiga qarang).

11:21 *Onoto‘t* — Yeremiyoning ona shahri (1:1 ga qarang).

12:4 *“Bizga nima bo‘lishini Yeremiyo qayerdan ham bilardi?!”* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *“Bizga nima bo‘lishini u bilmaydi.”* Qadimiy yunoncha tarjimada *“Biz nima qilayotganimizni Xudo ko‘rmayapti.”*

12:5 *…Iordan bo‘yidagi chakalakzorda…* — qadimgi paytlarda Iordan daryosi bo‘yidagi chakalakzorlarda sherlar yashardi.

13:4 *Poro anhori* — Quddusdan qariyb 10 kilometr va Yeremiyoning ona shahri Onotoʻtdan qariyb 5 kilometr shimoli–sharqda joylashgan. Ibroniycha matnda bu oʻrindagi nom *Perot* boʻlib, odatda Furot daryosi maʼnosini ifodalaydi. Biroq Furot daryosi Onotoʻt shahridan taxminan 1000 kilometr uzoqlikda joylashgani uchun, bu oyatda Furot daryosi nazarda tutilmagan boʻlsa kerak (shu bobning 5-7–oyatlarida ham ishlatilgan). Ehtimol, ushbu oyatda Poro anhori — Furot daryosining ramzi. Furot daryosi Yahudo xalqi kelajakda surgun qilinadigan Bobil yurtida edi.

13:13 *mast* — bu oʻrinda sharob Xudo gʻazabining ramzi boʻlib, sharobdan mast boʻlish Xudoning hukmiga duchor boʻlishni bildiradi (25:15-29 ga va Ishayo 51:17-23 ga qarang).

13:18 *Shohga va ona malikaga…* — Yohayixin va uning onasi Naxushta nazarda tutilgan (4 Shohlar 24:8, 12 ga qarang). Odatda shohning onasi saroyda yuqori martabaga ega boʻlgan.

13:23 *Habashistonlik* — ibroniycha matnda *Kushlik*. Kush degan joy Misrdan janubda boʻlib, hozirgi Sudan va Efiopiya mamlakatlarining bir qismini oʻz ichiga olgan edi.

13:24-25 *Garmsel* — issiq shamol.

13:27 *…fohishabozligingizning guvohi boʻldim* — 2:20, 3:2, 6 oyatlarga va 2:20 izohiga qarang.

14:18 *Paygʻambaru ruhoniylar…bemaʼni maslahatlar berib yuribdilar* — 2:8, 5:13, 6:13, 8:10 ga va shu bobning 13-15–oyatlariga qarang.

14:19 *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion*. 3:14 izohiga qarang.

15:4 *Manashe…koʻp qabihliklar qilgan edi* — 4 Shohlar 21:1-16 ga qarang. Manashe miloddan oldingi 687-642 yillarda hukmronlik qilgan.

15:12 *shimoldan* — Bobil yurti nazarda tutilgan (1:15 ga va oʻsha oyatning izohiga qarang).

16:6 *…badanini tilmaydi, sochini oldirmaydi…* — bu odatlar Kanʼon yurtida yashagan butparast xalqlarga xos edi (misol uchun, 3 Shohlar 18:28 ga qarang). Xudo Isroil xalqiga bunday qilishni qatʼiyan man etgan edi (Levilar 19:27-28, Qonunlar 14:1 ga qarang). Shunga qaramay, ular baʼzan butparastlarning bu odatlariga rioya qilishardi (41:5 ga qarang).

16:15 *shimoldagi yurt* — Bobil nazarda tutilgan (1:15 ga va oʻsha oyatning izohiga qarang).

17:1 *Sizlarning gunohingiz…qurbongohlaringiz shoxlariga…oʻyib bitilgan* — odamlar Kanʼon xalqlarining xudolariga topingan joylarda qurbongohlar odatda toshdan yasalgan. Oʻsha qurbongohlarning toʻrtala burchagining uchi hayvon shoxi shaklida yasalgan edi va qurbonliklarning qoni oʻsha shohlarga surilardi. Odamlar Quddusda Xudoga sajda qilganlarida ham Maʼbaddagi bronza qurbongoh shoxlariga qurbonlik qonini surtishardi. Bu marosim xalqning gunohlari yuvilganini bildirardi (Levilar 16:18-19 ga qarang). Bu oʻrinda Isroil xalqi begona xudolarga sajda qilib, oʻsha yerdagi qurbongohlariga qon surgani ularning gunohi yuvilganini emas, aksincha Xudoning nazarida abadiy muhr boʻlib qolgani haqida gap ketyapti.

17:2 *Ashera* — Kan'ondagi xalqlar sajda qilgan hosildorlik xudosi bo'lib, ayol qiyofasida tasavvur qilingan. Uning erkak jufti Baal edi. Asheraning tasvirlari baland ustun shaklida bo'lib, yog'ochdan yasalgan edi.

17:3 *O'z tog'im* — Quddusdagi Sion tog'iga ishora. Quddusdagi Ma'bad qurilgan tepalik Sion tog'i deb atalgan. Eski Ahddagi she'riy parchalarda va payg'ambarlar bitiklarida Sion so'zi ko'pincha Quddus shahriga yoki Xudoning xalqiga nisbatan ishlatilgan. To'liqroq ma'lumotga ega bo'lish uchun lug'atdagi SION so'ziga qarang.

17:3 *sajdagoh* — ibroniycha matnda *bamax*, ya'ni "tepalik". 7:31 ning ikkinchi izohiga qarang.

19:2 *Xinnum soyligi* — 7:31 ning birinchi izohiga qarang.

19:5 *sajdagoh* — ibroniycha matnda *bamax*, ya'ni "tepalik". 7:31 ning ikkinchi izohiga qarang.

19:7 *...barbod qilaman* — ibroniycha matnda ishlatilgan bu fe'l "ko'za" so'zi bilan bir o'zakka ega (shu bobning 1–oyatiga qarang). Bu fe'l *bo'shataman* degan ma'noni ham bildiradi. Bu vaziyatda Yeremiyo ko'zadagi suvni to'kib, uni bo'shatgan bo'lishi mumkin. Ehtimol, bu harakati orqali u xalqning o'zini himoya qilish to'g'risidagi rejalari puch ekanligiga, Quddus baribir mag'lubiyatga uchrashiga ramziy ma'noda ishora qilgan (yana shu bobning 10–oyatiga qarang).

20:2 *Egamiz uyining hovlisidagi Yuqori Benyamin darvozasi* — Ma'badning ichki hovlisiga olib boradigan bu darvoza Benyamin qabilasi joylashgan tomonga — shimolga qaratib qurilgan edi. Bu darvoza tepalikda joylashgani uchun "Yuqori" deb nom olgan (4 Shohlar 15:35, Hizqiyol 9:2 ga qarang). Shahar devorining shimol tomonidagi yana bir darvoza "Benyamin darvozasi" deb atalardi (37:11-13 ga qarang).

20:3 *«Dahshat qamragan»* — ibroniycha matnda *«Mago'rmisabib»*, ma'nosi *dahshat qamragan*.

20:16 *Egamiz shafqatsizlarcha vayron qilgan Shaharlar* — Sado'm va G'amo'raga ishora (Ibtido 18:16-19:28 ga qarang).

21:1 *Zidqiyo* — 1:3 ning ikkinchi izohiga qarang.

21:2 *Navuxadnazar* — miloddan oldingi 605-562 yillarda Bobilda hukmronlik qilgan. Miloddan oldingi 586 yilda u Quddusni vayron qilib, aholining asosiy qismini Bobilga surgun qilgan edi (4 Shohlar 25:1-21 ga qarang).

21:4 *Bobilliklar* — ibroniycha matnda *Xaldeylar*, o'sha vaqtda Bobilliklar shu nom bilan ham atalardi (shu bobning 9–oyatida ham bor).

21:14 *Shohning saroyi* — ibroniycha matndan so'zma–so'z tarjimasi *O'rmoningiz*, shoh saroyining eng katta xonasiga ishora. Bu xona Lubnon tog'laridan keltirilgan sadr daraxtidan qurilgani uchun "Lubnon o'rmoni" deb nom olgan edi (3 Shohlar 7:1-3 ga qarang).

22:5 *...O'z nomim haqi ont ichib...* — qadimgi Yaqin Sharqda odamlar aytgan gapini tasdiqlash uchun, o'zlaridan buyukroq zot nomini yoki narsani o'rtaga qo'yib qasam ichishar edi. Xudo borliqdagi eng buyuk Zot bo'lgani uchun, U aytgan so'zining qat'iy ekanligini ko'rsatish maqsadida O'z nomini o'rtaga qo'yib qasam ichdi.

22:6 *Gilad o'lkasi* — Iordan daryosining sharq tomonida joylashgan.

22:10 *O'lgan shohingiz* — Yahudo shohi Yo'shiyo nazarda tutilgan. Yo'shiyo miloddan oldingi 640-609 yillarda hukmronlik qilgan.

22:10 *surgun bo'lgan shahzodangiz* — shoh Yohuxoz nazarda tutilgan. Shoh Yohuxoz otasi Yo'shiyoning vafotidan so'ng miloddan oldingi 609 yilda taxtga o'tirib, 3 oygina hukmronlik qilgan. So'ng fir'avn Nexo tomonidan Misrga surgun qilingan (4 Shohlar 23:31-34 ga qarang).

22:11 *Yohuxoz* — ibroniycha matnda *Shallum*, Yohuxozning yana bir ismi (4 Shohlar 23:30 ga qarang).

22:13 *Uyini nohaqlik bilan qurgan* — Yahudo shohi Yohayiqim nazarda tutilgan (shu bobning 18–oyatiga qarang). Akasi Yohuxoz surgun qilingandan keyin, Yohayiqim taxtga o'tirib, miloddan oldingi 609-598 yillarda hukmronlik qilgan.

22:20 *...Lubnon...Bashan o'lkasi...Aborim tog'lari...* — Lubnon tog'lari Quddusdan shimolda, Bashan o'lkasi shimoli–sharqda, Aborim tog'lari janubda — Mo'ab yurtida joylashgan.

22:20 *o'ynashlaring* — Yahudo xalqining ittifoqdoshlariga ishora.

22:23 *«Lubnon» saroyi* — 21:14 ga va o'sha oyatning izohiga qarang.

22:24 *Yohayixin* — ibroniycha matnda *Xoniyo*, Yohayixinning yana bir ismi (shu bobning 28–oyatida ham bor). Yohayixin miloddan oldingi 598 yilda uch oy davomida Yahudoda hukmronlik qilgan.

22:25 *Navuxadnazar* — miloddan oldingi 605-562 yillarda Bobilda hukmronlik qilgan. U miloddan oldingi 598 yilda u Quddusni qamal qilib, Yohayixinni Bobilga surgun qilgan. Yohayixin Bobilda vafot etdi. 4 Shohlar 24:10-17, 25:27-30 ga qarang.

22:25 *Bobilliklar* — ibroniycha matnda *Xaldeylar*, o'sha vaqtda Bobilliklar shu nom bilan ham atalardi.

22:26 *onang* — 13:18 izohiga qarang.

23:8 *shimoldagi yurt* — Bobil nazarda tutilgan (1:15 ga va o'sha oyatning izohiga qarang).

23:10 *La'nat* — Xudo bergan jazoga ishora. Odamlar Xudoning ahdiga sodiq qolmaganlari uchun butun xalq va ular yashagan yurt la'natlangan edi (Qonunlar 29:18-21 ga qarang).

23:14 *...Sado'm...G'amo'ra...* — aholisining o'ta buzuqligi oqibatida Egamiz vayron qilgan ikkita shahar (Ibtido 18:16-19:28 ga qarang).

23:15 *...achchiq o't...zaharli suv...* — iztirobu alamga ishora qilayotgan ko'chma ma'nodagi ibora.

23:18 *Egamizning kengashi* — Xudoning taxti atrofida samoviy mavjudotlar yig'ilgani haqida Eski Ahdda bir necha marta so'z yuritilgan (misol uchun, Ayub 1:6-12, 2:1-6, 3 Shohlar 22:19-22, Zabur 81:1, 88:8 va Ishayo 6:1-8 ga qarang).

23:33 *...Egamiz bizga nima yuklamoqchi?* — ibroniycha matndan so'zma–so'z tarjimasi *...Egamizning yuki nima?* Bu o'rindagi ibroniycha so'z "yuk" yoki "Egamizning so'zi"

ma’nosini ifodalashi mumkin. Yeremiyo bu so‘zdan mohirona foydalanib, Yahudo xalqini koyiydi, ular Egamizning so‘zini yuk deb bilganlari uchun ularni urishadi. Yahudo xalqi Xudoga itoat qilishni istamay, Uning so‘zlarini og‘rinib eshitadi. Soxta payg‘ambarlarning tilyog‘lamalik bilan aytgan gaplarini esa jon quloqlari bilan eshitishadi.

23:33 *Sizlar…yuk bo‘ldingizlar* — qadimiy yunoncha va lotincha tarjimalardan. Ibroniycha matnda *Qanday yuk?*

23:39 *Men sizlarni yuk ko‘targanday ko‘tarib…* — ba’zi ibroniy qo‘lyozmalaridan, qadimiy yunoncha, suryoniycha va lotincha tarjimalardan. Ibroniycha matnda *Men sizlarni unutib yuboraman….*

24:1 *Navuxadnazar* — 22:25 ning birinchi izohiga qarang.

24:1 *Yohayixin* — ibroniycha matnda *Yoxoniyo*, Yohayixinning yana bir ismi (22:24 izohiga qarang).

24:5 *Bobilliklar* — ibroniycha matnda *Xaldeylar*, o‘sha vaqtda Bobilliklar shu nom bilan ham atalardi.

24:8 *Zidqiyo* — 1:3 ning ikkinchi izohiga qarang.

25:1 *Yohayiqim hukmronligining to‘rtinchi yili* — miloddan oldingi 605 yil (1:3 ning birinchi izohiga qarang).

25:3 *Yo‘shiyo Yahudoda hukmronlik qilgan davrning o‘n uchinchi yili* — miloddan oldingi 627 yil (1:2 ning ikkinchi izohiga qarang).

25:12 *Bobilliklar* — ibroniycha matnda *Xaldeylar*, o‘sha vaqtda Bobilliklar shu nom bilan ham atalardi.

25:17 *sharob* — bu o‘rinda Xudo g‘azabining ramzi bo‘lib, sharobdan mast bo‘lish Xudoning hukmiga duchor bo‘lishni bildiradi (shu bobning 27–oyatiga qarang).

25:20 *talafot ko‘rgan Ashdod* — uzoq qamaldan keyin Ashdod shahri Misrliklarga mag‘lub bo‘ldi.

25:23 *Dedon, Temo, Buz* — Arabiston yarim orolidagi shaharlar.

25:23 *…sochini oldirib yuradigan…* — 9:26 ning birinchi izohiga qarang.

25:26 *Bobil* — ibroniycha matnda *Shashax*, Bobilga nisbatan ishlatilgan yana bir nom.

25:30 *Uzum ezuvchilar kabi…* — qadimgi paytlarda odamlar uzumni qoyatoshga o‘yilgan chuqurga yoki tuproqdan qazilgan, tubiga va atrofiga zich qilib tosh terilgan chuqurga solib, sharbatini siqib olish uchun oyoqlari bilan ezardilar. Sharbat o‘sha chuqurdan yana boshqa bir chuqurga oqib tushardi. Uzum ezish Muqaddas Kitobda ko‘pincha Xudoning odamlar ustidan chiqaradigan hukmiga nisbatan ko‘chma ma’noda ishlatilgan.

25:34 *…kulga belaninglar* — kulga belanish umidsizlikni va qayg‘uli holatni ifodalaydi. Ko‘pincha bu harakat Xudodan kechirim so‘rab ibodat qilish va Undan madad tilash bilan birgalikda amalga oshirilgan.

26:1 *Yohayiqimning Yahudodagi ilk hukmronligi davri* — miloddan oldingi 609 yil (1:3 ning birinchi izohiga qarang).

26:6 *Shilo‘* — 7:12 izohiga qarang.

26:10 *…Yangi darvozaning kiraverishidagi kursilarga o‘tirdilar* — qadimgi paytlarda sud kengashi ko‘pincha shahar, saroy yoki ma’bad darvozasi oldidagi ochiq maydonda o‘tkazilardi.

26:18 *Yahudo shohi Hizqiyo davri* — miloddan oldingi 716-687 yillar.

26:18 *…Mixo…shunday deb aytgan edi…* — Mixo 3:12 ga qarang.

26:18 *Egamizning uyi turgan tog‘* — Quddusdagi Sion tog‘iga ishora. 17:3 ning birinchi izohiga qarang.

27:1 *Zidqiyo* — ba’zi ibroniy qo‘lyozmalaridan va qadimiy suryoniycha tarjimadan (yana shu bobning 3, 12–oyatlariga va 28:1 ga qarang). Ibroniycha matnda *Yohayiqim* (Zidqiyoning akasi).

27:1 *Zidqiyo Yahudoda hukmronligining ilk davri* — miloddan oldingi 593 yil (28:1 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang).

27:6 *Navuxadnazar* — 21:2 izohiga qarang.

27:7 *Navuxadnazarning shohligi qulaguncha…* — miloddan oldingi 539 yilda Midiya va Fors lashkarlari shoh Kurush boshchiligida Bobil shahrini bosib olishdi.

27:19-21 *Navuxadnazar* — 22:25 ning birinchi izohiga qarang.

27:19-21 *Yohayixin* — ibroniycha matnda *Yoxoniyo*, Yohayixinning yana bir ismi (22:24 izohiga qarang).

27:22 *…ashyolarning hammasi Bobilga olib ketiladi* — 4 Shohlar 25:13-15 ga qarang.

28:1 *…Yahudo shohi Zidqiyo hukmronligining…to‘rtinchi yili beshinchi oyi…* — miloddan oldingi 593 yilning beshinchi oyi (1:3 ning ikkinchi izohiga qarang). Ibroniy kalendarining Av oyi nazarda tutilgan. Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan iyulning o‘rtasidan boshlanadi.

28:3 *Navuxadnazar* — 21:2 izohiga qarang.

28:4 *Yohayixin* — ibroniycha matnda *Yoxoniyo*, Yohayixinning yana bir ismi (22:24 izohiga qarang).

28:4 *…Bobilga surgun bo‘lgan…hamma asirlar…* — 22:25 ning birinchi izohiga qarang.

28:9 *…payg‘ambarning bashorati bajo bo‘lganidan keyingina…* — Qonunlar 18:21-22 ga qarang.

28:17 *O‘sha yilning yettinchi oyi* — 28:1 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

29:1 *Navuxadnazar* — 22:25 ning birinchi izohiga qarang.

29:2 *Yohayixin* — ibroniycha matnda *Yoxoniyo*, Yohayixinning yana bir ismi (22:24 izohiga qarang).

29:3 *Zidqiyo* — 1:3 ning ikkinchi izohiga qarang.

29:14 *Men sizlarni yana farovonlikka erishtiraman* — yoki *Men sizlarni asirlikdan ozod qilib, Quddusga qaytarib olib kelaman*.

30:2 *o‘rama qog‘oz* — papirus yoki oshlangan teridan qilingan uzun o‘ralgan qog‘oz. Qadimgi paytlarda kitoblar odatda o‘rama qog‘oz shaklida bo‘lgan.

30:3 *…Men xalqim Isroilni va Yahudoni yana farovonlikka erishtiraman* — yoki *…Men xalqim Isroilni va Yahudoni asirlikdan ozod qilib, Quddusga qaytarib olib kelaman*.

30:10 *…Yoqub…Isroil…* — Xudoning xalqi, ya'ni shimoliy va janubiy shohliklarning jamiki aholisi nazarda tutilgan (2:4 izohiga qarang).

30:14 *o'ynashlaring* — Isroil xalqining ittifoqdoshlariga ishora.

30:17 *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion*. 3:14 izohiga qarang.

31:6 *Efrayim* — 7:15 izohiga qarang.

31:6 *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion* (shu bobning 12–oyatida ham bor). 3:14 izohiga qarang.

31:15 *Rama shahri* — Quddusdan qariyb 8 kilometr shimolda joylashgan. Rohilaning maqbarasi Rama shahrining yaqinida, Zilzax degan yerda joylashgan (1 Shohlar 10:2 ga qarang).

31:15 *Bolalari uchun yig'lar Rohila…* — majoziy ma'nodagi bu ibora Isroil uchun, ya'ni shimoliy shohlik uchun tutilgan azani bildiradi, chunki miloddan oldingi 722 yilda Ossuriyaliklar Isroilga hujum qilib, aholisini surgun qilgan edilar. Shimoliy shohlikning ikkita asosiy qabilasi — Efrayim va Manashe qabilalari Rohilaning o'g'li Yusufdan kelib chiqqan edi.

31:21 *bokira qiz* — 4:31 izohiga qarang.

31:22 *…Isroil O'z Xudosiga chirmashib oladi* — ibroniycha matndan so'zma–so'z tarjimasi *…ayol erkakni qurshab oladi*. Bu majoziy iboraning ma'nosi quyidagicha bo'lishi mumkin: Xudoning xalqi to'g'ri yo'lga qaytib, Xudoga sodiq bo'ladi.

31:23 *Men xalqimni yana farovonlikka erishtiraman* — yoki *Men xalqimni asirlikdan ozod qilib, ona yurtiga qaytarib olib kelaman*.

31:23 *muqaddas tog'* — Quddusdagi Sion tog'iga ishora. 17:3 ning birinchi izohiga qarang.

31:26 *…odamlar miriqib uxlab, kuchga to'lib uyg'onadilar* — ibroniycha matndan so'zma–so'z tarjimasi *…Men uyg'onib, atrofimga razm soldim. Mening uyqum shirin bo'lgan ekan*. Bu gap mazkur bobning 23–oyatida tilga olingan odamlarning gapi bo'lishi mumkin. Bu oyat ravon o'qilishi uchun shu odamlarning ona yurtidagi farovon hayotini tasvirlovchi gap sifatida tarjima qilingan.

31:32 *xo'jayin* — yoki *er*.

31:37 *Zamin poydevori* — qadimda Isroil xalqining tasavvuriga ko'ra, yer tep–tekis bo'lib, yer ostida buyuk dengiz bor edi, dengiz tubida o'rnatilgan ulkan ustunlar yerni ushlab turardi. Bu ustunlar dengiz tubidagi poydevorga tayanardi.

31:38 *Xanonil minorasi* — mazkur minora va shu bobning 38-40–oyatlarida aytib o'tilgan barcha joylar Quddus shahrining chegarasi bo'ylab joylashgan edi.

31:40 *Xinnum soyligi* — 7:31-34 oyatlarga va 7:31 ning birinchi izohiga qarang.

32:1 *Zidqiyo hukmronligining o'ninchi yili* — miloddan oldingi 586 yil (1:3 ning ikkinchi izohiga qarang).

32:1 *Navuxadnazar* — 21:2 izohiga qarang.

32:4 *Bobilliklar* — ibroniycha matnda *Xaldeylar*, o‘sha vaqtda Bobilliklar shu nom bilan ham atalardi (shu bobning 5, 24, 25, 28, 29, 43–oyatlarida ham bor).

32:7 *...dalamni sotib olish huquqiga egasan...* — Levilar 25:25 ga qarang.

32:9 *43 misqol* — ibroniycha matnda *17 shaqal*, taxminan 195 grammga to‘g‘ri keladi.

32:10 *...uni muhrladim...* — vasiqa o‘ralib, ochilmasligi uchun surg‘uch bilan tamg‘a bosilardi.

32:18 *...minglab avlodlarga...* — yoki *...minginchi avlodga...* yoxud *...minglarga....*

32:22 *sut va asal oqib yotgan yurt* — 11:5 izohiga qarang.

32:24 *...shahar devoriga qiyalatib tuproq uyyaptilar* — 6:6 ning ikkinchi izohiga qarang.

32:35 *Xinnum soyligi* — 7:31 ning birinchi izohiga qarang.

32:35 *sajdagoh* — ibroniycha matnda *bamax*, ya’ni “tepalik”. 7:31 ning ikkinchi izohiga qarang.

32:35 *...o‘g‘il–qizlarini Mo‘laxga qurbonlik qilib, olovda kuydirdilar* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *...o‘g‘il–qizlarini Mo‘laxga (olovdan) o‘tkazdilar*. Butparast xalqlarga xos bo‘lgan bu jirkanch odat Xudoning nazarida o‘taketgan qabihlik edi.

32:44 *...Men xalqimni yana farovonlikka erishtiraman* — yoki *...Men xalqimni asirlikdan ozod qilib, ona yurtiga qaytarib olib kelaman*.

33:4 *qamal inshootlari* — qadimgi davrlarda dushmanlar devor bilan o‘ralgan shaharga hujum qilayotganlarida, ko‘pincha devor yoniga baland qurilmalar yasaganlar. Shu yo‘l bilan ular shaharni himoya qilayotgan xalqqa hujum qilish uchun devorni buzishga yoki oshib o‘tishga qulay imkoniyat yaratganlar.

33:5 *Bobilliklar* — ibroniycha matnda *Xaldeylar*, o‘sha vaqtda Bobilliklar shu nom bilan ham atalardi.

33:7 *Men Yahudo va Isroil xalqlarini yana farovonlikka erishtiraman...* — yoki *Men Yahudo va Isroil xalqlarini asirlikdan ozod qilib, ona yurtiga qaytarib olib kelaman...* (shu bobning 26–oyatida ham bor).

33:14 *Isroil* — shimoliy shohlikning aholisi nazarda tutilgan (2:4 izohiga qarang).

33:15 *solih bir novda* — Dovud naslidan kelib chiqadigan shohga ishora.

34:1 *Navuxadnazar* — 21:2 izohiga qarang.

34:2 *Zidqiyo* — 1:3 ning ikkinchi izohiga qarang.

34:5 *...o‘tgan shohlarni qanday dafn qilishgan bo‘lsa, ularning sharafiga qanday gulxan yoqishgan bo‘lsa...* — 2 Solnomalar 16:14, 21:19 ga qarang.

34:11 *Keyinchalik* — Misrliklarning lashkari Quddusga yaqinlashgani sababli Bobilliklar Quddus qamalini vaqtinchalik to‘xtatgan edilar (shu bobning 21-22–oyatlariga va 37:5-8 ga qarang). “Keyinchalik” so‘zi o‘sha paytga ishora qiladi.

34:13 *...shunday degan edim...* — Qonunlar 15:12 ga qarang.

34:18 *...buzoqni ikki qismga bo‘lib, ikki bo‘lagi orasidan o‘tgan edilar* — buzoqning bo‘laklanishi biror kishining ont ichib, va’da berishga aloqador bo‘lgan urf–odat bo‘lsa

kerak. Ikkiga bo‘lingan buzoqning orasidan o‘tadigan odam: “Agar o‘z va’damda turmasam, men ham mana shu buzoqday bo‘laklanay”, deb ont ichayotganday bo‘ladi.

34:21 *Vaqtinchalik chekingan Bobil shohining lashkari* — 37:5-8 ga qarang.

35:1 *Yohayiqim* — 1:3 ning birinchi izohiga qarang.

35:6 *Yohunadav* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Yonadav* (shu bobning 10, 19–oyatlarida ham bor).

35:11 *Navuxadnazar* — 22:25 ning birinchi izohiga qarang.

35:11 *Bobil* — ibroniycha matnda *Xaldey*, o‘sha vaqtda Bobil yurti shu nom bilan ham atalardi.

36:1 *Yohayiqim hukmronligining to‘rtinchi yili* — miloddan oldingi 605 yil (1:3 ning birinchi izohiga qarang).

36:2 *O‘rama qog‘oz* — 30:2 izohiga qarang.

36:2 *Yo‘shiyo davri* — 1:2 ning ikkinchi izohiga qarang.

36:9 *Yohayiqim hukmronligining beshinchi yili to‘qqizinchi oyi* — miloddan oldingi 604 yilning to‘qqizinchi oyi (shu bobning 1–oyatiga va o‘sha oyatning izohiga qarang). Ibroniy kalendarining Xislav oyi nazarda tutilgan. Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan noyabrning o‘rtasidan boshlanadi.

36:22 *Kech kuz* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *To‘qqizinchi oy*, ya’ni noyabr oyi (shu bobning 9–oyatiga qarang).

36:24 *...qayg‘udan kiyimlarini yirtmadilar* — kiyimlarni yirtish umidsizlikni va qayg‘uli holatni ifodalaydi. Ammo bu vaziyatda shoh va uning a’yonlari Xudoga itoatsizlik qilganlari uchun hech qanday afsus chekmagan edilar, shuning uchun kiyimlarini yirtmadilar.

36:30 *Sening avlodingdan birontasi ham Dovud taxtida o‘tirmaydi* — shoh Yohayiqimning o‘g‘li Yohayixin uch oygina hukmronlik qildi, so‘ng Bobilga surgun qilindi (4 Shohlar 24:8-17 ga qarang).

37:1 *Navuxadnazar* — 22:25 ning birinchi izohiga qarang.

37:1 *Zidqiyo* — 1:3 ning ikkinchi izohiga qarang.

37:1 *Yohayixin* — ibroniycha matnda *Xoniyo*, Yohayixinning yana bir ismi. Yohayixin miloddan oldingi 598 yilda uch oy davomida Yahudoda hukmronlik qilgan.

37:5 *...fir’avn lashkari Misrdan chiqdi* — fir’avn Xofraning lashkariga ishora. U shoh Zidqiyoning ittifoqdoshi bo‘lib, yordamga kelayotgan edi. Xofra yana Apriy ismi bilan tanilgan, u miloddan oldingi 589-570 yillarda Misrda hukmronlik qilgan. Keyinchalik raqiblari Misrda unga suiqasd uyushtirib, uni o‘ldirdilar (44:30 ga qarang).

37:5 *Bobilliklar* — ibroniycha matnda *Xaldeylar*, o‘sha vaqtda Bobilliklar shu nom bilan ham atalardi (shu bobning 8, 9, 10, 11, 13, 14–oyatlarida ham bor).

37:12 *Benyamin hududi* — Yeremiyo Benyamin hududidagi Onoto‘t shahridan edi (1:1 ga qarang). U o‘z mulki bilan bog‘liq bo‘lgan masala bo‘yicha u yerga ketayotgan edi (32:6-8 ga qarang).

38:1 *Yohuxal* — ibroniycha matnda bu nomning boshqa varianti *Yuxal*. Uning Yohuxal

degan shakli 37:3 dan olingan.

38:2 *Bobilliklar* — ibroniycha matnda *Xaldeylar*, o‘sha vaqtda Bobilliklar shu nom bilan ham atalardi (shu bobning 18, 19, 23–oyatlarida ham bor).

38:7 *Habashistonlik* — ibroniycha matnda *Kushlik* (shu bobning 10–oyatida ham bor). 13:23 izohiga qarang.

38:7 *Benyamin darvozasidagi mahkama* — 26:10 izohiga qarang.

38:14 *Zidqiyo* — 1:3 ning ikkinchi izohiga qarang.

38:14 *Egamiz Ma’badining uchinchi kirishi* — 4 Shohlar 16:17-18 da aytib o‘tilgan shohning shaxsiy yo‘lagiga ishora bo‘lsa kerak. Ma’badning bu kirish joyidan faqat shohning o‘zi foydalangan. Bu kirish joy haqida Muqaddas Kitobda boshqa hech narsa yozilmagan.

38:28 *Yeremiyo Quddus qulagan kunga qadar soqchilar hovlisida qoldi* — ba’zi ibroniy qo‘lyozmalaridan, qadimiy yunoncha va suryoniycha tarjimalardan. Ibroniycha matnda quyidagi gap qo‘shilgan: *Quddus qulaganda shu voqealar yuz berdi*.

39:1 *Zidqiyo hukmronligining to‘qqizinchi yili o‘ninchi oyi* — miloddan oldingi 589 yilning o‘ninchi oyi (1:3 ning ikkinchi izohiga qarang). Ibroniy kalendarining Tabat oyi nazarda tutilgan. Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan dekabrning o‘rtasidan boshlanadi.

39:1 *Navuxadnazar* — miloddan oldingi 605-562 yillarda Bobilda hukmronlik qilgan.

39:2 *Zidqiyo hukmronligining o‘n birinchi yili to‘rtinchi oyi* — miloddan oldingi 586 yilning to‘rtinchi oyi (shu bobning 1–oyatiga va o‘sha oyatning birinchi izohiga qarang). Ibroniy kalendarining Tammuz oyi nazarda tutilgan. Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan iyunning o‘rtasidan boshlanadi.

39:3 *…shaharning O‘rta darvozasidagi mahkamalarda qo‘mondonlik qarorgohini joylashtirdilar* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *…shaharning O‘rta darvozasida o‘tirishdi*. Qadimgi paytlarda shahar darvozasi savdo–sotiq, ijtimoiy va huquqiy masalalarni hal qilish uchun odamlar yig‘iladigan joy edi.

39:3 *…Nargal–Sharazar, Samgarnavu, bosh maslahatchi Sarsahim…* — yoki *…Samgarlik Nargal–Sharazar, bosh maslahatchi Navusarsahim…*.

39:4 *Iordan vodiysi* — ibroniycha matnda *Araba*. Araba umumiy geografik nom bo‘lib, bu oyatda Iordan vodiysiga nisbatan ishlatilgan. Shoh o‘z lashkari bilan Iordan daryosidan kechib o‘tib, ehtimol, Mo‘ab va Ommon yurtiga qochmoqchi bo‘lgan.

39:5 *Bobil* — ibroniycha matnda *Xaldey*, o‘sha vaqtda Bobil yurti shu nom bilan ham atalardi.

39:5 *Rivlo shahri* — bu shahar Orontes daryosi bo‘yida, hozirgi Suriya hududida joylashgan edi.

39:8 *Bobilliklar* — ibroniycha matnda *Xaldeylar*, o‘sha vaqtda Bobilliklar shu nom bilan ham atalardi.

39:16 *Habashistonlik* — ibroniycha matnda *Kushlik*. 13:23 izohiga qarang.

39:16 *Obidmalek* — 38:7-13 ga qarang.

40:1 *Rama shahri* — 31:15 ning birinchi izohiga qarang.

40:5 *Bu yurtda qoladigan bo‘lsang…* — yoki *Yeremiyo qayrilib ketmasidan oldin, Nabizaradon shunday dedi…* yoxud *Yeremiyo javob bermasidan oldin, Nabizaradon yana shunday dedi….*

40:6 *Mispax shahri* — Quddusdan qariyb 8 kilometr shimolda joylashgan.

40:8 *Yazaniyo* — ibroniycha matnda bu nomning boshqa varianti *Yozaniyo*. Uning Yazaniyo degan shakli 4 Shohlar 25:23 dan olingan.

40:9 *Bobilliklar* — ibroniycha matnda *Xaldeylar*, o‘sha vaqtda Bobilliklar shu nom bilan ham atalardi (shu bobning 10–oyatida ham bor).

41:1 *O‘sha yilning yettinchi oyi* — miloddan oldingi 586 yilning yettinchi oyi (39:2 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang). Ibroniy kalendarining Tishri oyi nazarda tutilgan (Tishri oyi Itanim oyi deb ham ataladi). Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan sentabrning o‘rtasidan boshlanadi.

41:1 *Zidqiyo* — 1:3 ning ikkinchi izohiga qarang.

41:1 *Mispax* — 40:6 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

41:3 *Bobillik* — ibroniycha matnda *Xaldey*, o‘sha vaqtda Bobilliklar shu nom bilan ham atalardi (shu bobning 17-18–oyatlarida ham bor).

41:5 *Shakam, Shilo‘ va Samariya* — sobiq Isroilga, ya’ni shimoliy shohlikka qarashli bu shaharlar sajda markazlari bo‘lgan.

41:5 *…soqolini qirgan, kiyimlarini yirtgan, tanalarini tilgan edilar…* — soqol qirish, kiyimlarni yirtish va tanani tilish umidsizlikni va qayg‘uli holatni ifodalaydi (yana 16:6 izohiga qarang). Bu odamlar Quddusning mag‘lubiyati tufayli aza tutib, Chayla bayramida Xudoga sajda qilish niyatida Ma’badga ketayotgan bo‘lishsa kerak.

41:7-9 *O‘ldirgan odamlarning jasadlarini esa katta sardobaga tashladi* — qadimiy yunoncha tarjimadan. Ibroniycha matnda *Ismoil Gadaliyo tufayli o‘ldirgan odamlarning jasadlarini sardobaga tashladi* yoki *Ismoil o‘ldirgan odamlarning jasadlarini sardobaga — Gadaliyoning jasadi ustiga tashladi*.

41:7-9 *…bu sardobani Yahudo shohi Oso…qurdirgan edi* — Oso miloddan oldingi 911-870 yillarda, Basho miloddan oldingi 909-886 yillarda hukmronlik qilgan. Shoh Oso bu sardobani Mispax shahrini mustahkamlagan paytda qurdirgan bo‘lsa kerak (3 Shohlar 15:20-22 ga qarang).

41:10 *Ommon yurti* — Iordan daryosining sharq tomonida joylashgan.

41:12 *Givon* — bu shahar Mispaxdan bir necha kilometr uzoqlikda joylashgan edi.

42:1 *Ozariyo* — ibroniycha matnda bu nomning boshqa varianti *Yozaniyo*. Uning Ozariyo degan shakli 43:2 dan olingan.

43:3 *Bobilliklar* — ibroniycha matnda *Xaldeylar*, o‘sha vaqtda Bobilliklar shu nom bilan ham atalardi.

43:10 *Navuxadnazar* — miloddan oldingi 605-562 yillarda Bobilda hukmronlik qilgan. U miloddan oldingi 605 yilda Karxamishdagi jangda fir’avn Nexoni mag‘lub qildi (46:2 ga qarang). Bu oyatda esa Yeremiyo Navuxadnazarning ancha keyin — miloddan

oldingi 568-567 yillarda Misr ustidan qozongan zafariga ishora qiladi.

43:13 *Quyosh sajdagohi* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *Quyosh uyi*. Misrliklarning quyosh xudosi Ra sajdagohiga ishora qilingan bo‘lishi mumkin. Yoki shu sajdagoh joylashgan Geliopol shahri nazarda tutilgandir. Geliopol hozirgi Qohira shahridan qariyb 11 kilometr shimoli–sharqda, Nil daryosi bo‘yida joylashgan edi.

44:1 *Taxpanxas va Nuf shaharlari* — 2:16 ning birinchi izohiga qarang.

44:1 *Misrning janubi* — ibroniycha matnda *Patro‘s*, Misr janubiy hududining qadimgi nomi.

44:15 *…Misrning shimoliy va janubiy hududida…* — ibroniycha matnda *…Misrda, Patro‘sda…* (shu bobning 1–oyatiga qarang).

44:17 *samo qirolichasi* — 7:18 izohiga qarang.

44:30 *Zidqiyo* — 1:3 ning ikkinchi izohiga qarang.

44:30 *Navuxadnazar* — 21:2 izohiga qarang.

44:30 *Xofra* — 37:5 ning birinchi izohiga qarang.

45:1 *Yohayiqim hukmronligining to‘rtinchi yili* — miloddan oldingi 605 yil (1:3 ning birinchi izohiga qarang).

45:1 *o‘rama qog‘oz* — 30:2 izohiga qarang.

45:1 *Yeremiyo yuqoridagi so‘zlarni…yozdirgandan so‘ng…* — 36:1-4 ga qarang.

46:2 *Nexo* — miloddan oldingi 609-594 yillarda hukmronlik qilgan.

46:2 *Yohayiqim hukmronligining to‘rtinchi yili* — miloddan oldingi 605 yil (1:3 ning birinchi izohiga qarang). Fir’avn Nexoning Karxamishdagi mag‘lubiyatidan so‘ng O‘rta yer dengizining sharqidagi yerlar Navuxadnazarga tobe bo‘ldi.

46:2 *Navuxadnazar* — 39:1 ning ikkinchi izohiga qarang.

46:9 *Habashistonlik* — ibroniycha matnda *Kushlik*. 13:23 izohiga qarang.

46:9 *Liviya* — ibroniycha matnda bu yurtning qadimgi nomi *Fut*.

46:9 *Lidiya* — ibroniycha matnda bu yurtning qadimgi nomi *Lud*. Bu yurt hozirgi Turkiyaning sharqida joylashgan edi.

46:11 *bokira qiz* — 4:31 izohiga qarang.

46:11 *Gilad* — 8:22 izohiga qarang.

46:14 *Nuf va Taxpanxas shaharlari* — 2:16 ning birinchi izohiga qarang.

46:15 *Jangchilaringiz mag‘lub bo‘ladi…Egamizning O‘zi ularni uradi* — yoki *Apis qochadi. Xudo Apisni urgani uchun, u dosh bermaydi*. Apis muqaddas buqaning nomidir. Memfis aholisi unga topinib, u xudo Ptaxning yerdagi qiyofasi deb ishonishardi.

46:16 *Ular qayta–qayta qoqiladilar…* — yoki *Xudo ularning hammasini qoqiltiradi….*

46:18 *Tovur tog‘i…Karmil tog‘i* — qadimgi Isroilning shimolidagi ikki tog‘.

46:20 *shimol so‘nasi* — Bobil lashkariga ishora (1:15 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang).

46:23 *chigirtka* — ba’zan to‘da–to‘da bo‘lib kelib, dalalardagi hosilga katta zarar

yetkazadigan hasharot.

46:24 *Shimoldagi xalq* — shu bobning 20–oyati izohiga qarang.

46:25 *No‘* — Fiva nomi bilan ham ma’lum. Fiva shahri Misr janubiy hududining markazi bo‘lib, Misr tarixida birmuncha vaqt poytaxt ham bo‘lgan edi.

46:25 *Omon* — Misr xudolarining hukmdori hisoblangan. Bu xudo fir’avnlarning homiysi hisoblangan.

46:27 *…Yoqub…Isroil…* — Xudoning xalqi, ya’ni shimoliy va janubiy shohliklarning jamiki aholisi nazarda tutilgan (2:4 izohiga qarang).

47:1 *G‘azo shahri* — Filistiya o‘lkasidagi Filist xalqiga qarashli bu shahar O‘rta yer dengizi bo‘yida joylashgan.

47:4 *Tir va Sidon* — Finikiyada muhim ahamiyatga ega bo‘lgan shaharlar. Filistlar bu shaharlar bilan ittifoq tuzgan edilar. Tir va Sidon Isroildan shimolda, O‘rta yer dengizi bo‘yida joylashgan edi. Bugungi kunda bu yerlar Livan mamlakatining janubiy qismini tashkil qiladi.

47:4 *Xafto‘r* — Krit nomi bilan ham ma’lum. Filist xalqining ajdodlari Krit orolidan kelgan edilar.

47:5 *Ashqalon* — Filistiya o‘lkasidagi Filist xalqiga qarashli bu shahar O‘rta yer dengizi bo‘yida joylashgan.

47:5 *…Filist zabardastlarining omon qolganlari* — yoki *…Filistlar vodiysida omon qolganlar*.

47:5 *…sochlarini qirdiradi…Qachongacha g‘am chekib, badaningizni tilasiz?!* — 16:6 izohiga qarang.

48:1 *Mo‘ab* — bu yurt O‘lik dengizning sharqida joylashgan edi.

48:1 *Navo…Xiratayim* — Mo‘ab yurtidagi shaharlar.

48:1 *Uning qal’asi* — ibroniycha matnda *Mizgab*, Mo‘ab yurtidagi noma’lum bir shaharga ishora bo‘lishi mumkin.

48:2 *…Xashbon…Madmon…* — Mo‘ab yurtidagi shaharlar.

48:3 *Xo‘ronayim* — Mo‘ab yurtidagi shahar.

48:9 *Mo‘ab uchun qabr toshi tayyorlang, Ko‘p o‘tmay Mo‘ab yo‘q bo‘ladi* — yoki *Mo‘ab ustiga tuz soching, chunki Mo‘ab taqir cho‘lga aylanadi* yoxud *Qaniydi, Mo‘abning qanotlari bo‘lsa, Mo‘ab uchib ketgan bo‘lardi*.

48:13 *Baytildagi buzoq* — 3 Shohlar 12:28-33, 4 Shohlar 10:29 ga qarang. Xo‘sheya 10:5-8 oyatlarga va Xo‘sheya 10:5 ning izohlariga ham qarang.

48:17 *saltanat hassasi* — bu maxsus hassa bo‘lib, shoh va hukmdorlarning hokimiyatini bildiruvchi ramz edi.

48:18 *Dibon* — Mo‘ab yurtidagi mustahkam shahar.

48:19 *Aror* — Mo‘ab yurtiga qarashli bu shahar Dibondan qariyb 10 kilometr janubi–sharqda, Arnon soyligi yaqinida joylashgan edi.

48:21 *Yaxaz* — ibroniycha matnda bu nomning boshqa varianti *Yaxzo*.

48:24 *Bozrax* — Mo‘ab yurtidagi shahar. 49:13 da aytib o‘tilgan Edom yurtining poytaxti Bozraxdan boshqa shahar.

48:26 *mast* — bu o‘rinda sharob Xudo g‘azabining ramzi bo‘lib, sharobdan mast bo‘lish Xudoning hukmiga duchor bo‘lishni bildiradi (25:15-29 ga va Ishayo 51:17-23 ga qarang).

48:31 *Xir–Xarasot* — ibroniycha matnda bu nomning boshqa varianti *Xir–Xares* (shu bobning 36–oyatida ham bor). Bu shahar Xir nomi bilan ham atalgan bo‘lib, Mo‘ab yurtining poytaxti edi.

48:32 *Men ham, Yazir shahri singari, sizlar uchun qayg‘uraman* — yoki *Men, Yazir shahridan ko‘ra, sizlar uchun ko‘proq qayg‘uraman*.

48:32 *Yazir shahri* — qadimiy yunoncha tarjimadan (yana Ishayo 16:8 ga qarang). Ibroniycha matnda *Yazir dengizi*.

48:33 *uzum siqish chuqurlari* — qadimgi paytlarda odamlar uzumni qoyatoshga o‘yilgan chuqurga yoki tuproqdan qazilgan, tubiga va atrofiga zich qilib tosh terilgan chuqurga solib, sharbatini siqib olish uchun oyoqlari bilan ezardilar. Sharbat o‘sha chuqurdan yana boshqa bir chuqurga oqib tushardi.

48:35 *sajdagoh* — ibroniycha matnda *bamax*, ya’ni “tepalik”. 7:31 ning ikkinchi izohiga qarang.

48:37 *…sochini oldirgan…soqolini qirib tashlagan…qo‘llarini tilgan…* — 16:6 izohiga qarang.

48:37 *…qanor o‘rab olgan* — qanor dag‘al qoramtir mato bo‘lib, echki yoki tuya junidan to‘qilgan. Qanorga o‘ranib olish umidsizlikni va qayg‘uli holatni ifodalaydi. Ko‘pincha bu harakat Xudodan kechirim so‘rab ibodat qilish va Undan madad tilash bilan birgalikda amalga oshirilgan.

48:38 *…tomlar ustida…* — u zamonlarda uylarning tomi tekis bo‘lib, odamlar tomga chiqib dam olishardi. Mo‘abda esa odamlar tom ustida orom olmay, qayg‘u va iztirob chekardilar.

48:41 *Mo‘ab shaharlari* — yoki *Xariyo‘t shahri*. Bu o‘rindagi ibroniycha so‘z *uning shaharlari* degan ma’noni anglatishi yoki Xariyo‘t shahrining nomini bildirishi mumkin (shu bobning 24–oyatiga qarang).

48:45 *shoh Sixo‘nning shahri* — shoh Sixo‘n hukmronlik qilgan davrda Xashbon shahri Amor yurtining poytaxti edi (Qonunlar 2:24 ga qarang). Yeremiyo bu bashoratini aytgan paytda esa Xashbon shahri Mo‘ab shohligiga qarashli edi.

48:45 *Ammo olov chiqadi Xashbon shahridan…Isyonkor odamlarning boshini yeydi* — Sahroda 21:26-29 da ham Mo‘abning halokati shunga o‘xshash so‘zlar bilan tasvirlangan. Yana shu bobning 2–oyatiga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

48:47 *…Men Mo‘ab xalqini yana farovonlikka erishtiraman* — yoki *…Men Mo‘ab xalqini asirlikdan ozod qilib, ona yurtiga qaytarib olib kelaman*.

49:1 *Ommon* — 41:10 izohiga qarang.

49:1 *Mo‘lax* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Milkom* (shu bobning 3–oyatida ham bor). Mo‘lax Ommon xalqining xudosi edi.

49:2 *Rabba* — Ommon yurtining poytaxti edi.

49:3 *Xashbon* — Mo‘ab va Ommon yurtining chegarasidagi muhim shahar. Qaysi yurtning qo‘li baland kelsa, o‘sha yurt Xashbonga egalik qilardi. Yeremiyoning bu oyatdagi bashoratiga ko‘ra, o‘sha paytda Xashbon Ommonliklarning qo‘li ostida bo‘lgan. Yana 48:2 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

49:3 *Ay shahri* — Yoshua 7-8–boblarda hikoya qilingan Aydan boshqa shahar. Yoshua kitobidagi Ay shahri Iordan daryosining g‘arb tomonida joylashgan edi. Mazkur oyatdagi Ay esa Mo‘ab yurtiga qarashli shahar bo‘lib, uning aynan qayerda joylashgani ma’lum emas.

49:3 *Qanorga o‘ranib…* — 4:8 izohiga qarang.

49:3 *…Qayg‘udan badaningizni tiling* — yoki *…Devor bilan o‘ralgan shaharlaringizning ichida sarosimaga tushganingizdan u yoqqa, bu yoqqa yuguring*. Badanni tilish umidsizlikni va qayg‘uli holatni ifodalaydi.

49:4 *qiz* — 4:31 izohiga qarang.

49:4 *Nechun kuching bilan maqtanasan? Sening kuching qirqiladi!* — yoki *Nechun hosildor vodiylaring bilan maqtanasan?* yoxud *Nega vodiylaring bilan maqtanasan? U yerda qon daryo bo‘lib oqadi!*

49:6 *…Men Ommon xalqini yana farovonlikka erishtiraman* — yoki *…Men Ommon xalqini asirlikdan ozod qilib, ona yurtiga qaytarib olib kelaman* (shu bobning 39–oyatida ham bor).

49:7 *Edom* — bu yurt O‘lik dengizning janubida joylashgan edi.

49:7 *Temon* — Edom yurtining shimolida joylashgan shahar va uning atrofidagi hudud. Bu o‘rinda Temon Edomning she’riy nomi sifatida ishlatilgan (shu bobning 20–oyatida ham bor).

49:8 *Dedon* — Arabiston yarim orolining shimoli–g‘arbida joylashgan shahar va uning atrofidagi hudud. O‘sha davrda Dedonliklarning katta bir guruhi Edom yurtida istiqomat qilgan bo‘lsa kerak.

49:8 *Esov nasli* — Isroil xalqi Yoqubdan, Edom xalqi esa Yoqubning akasi Esovdan kelib chiqqan edi.

49:12 *Jazo kosasi* — Xudo g‘azabining ramzi bo‘lgan sharob kosasiga ishora. Mana shu sharobdan mast bo‘lish Xudoning hukmiga duchor bo‘lishni bildiradi (25:15-29 ga va Ishayo 51:17-23 ga qarang).

49:13 *O‘z nomim bilan qasam ichib…* — 22:5 izohiga qarang.

49:13 *Bozrax shahri* — Edom yurtining poytaxti.

49:17-18 *Sado‘m, G‘amo‘ra…* — 23:14 izohiga qarang.

49:21 *Qizil dengiz* — ibroniycha matnda *Yom–Suf*, ma’nosi *Qamish dengizi*. Bu oyatdagi mana shu nom hozirgi Aqaba qo‘ltig‘iga (ya’ni Qizil dengizning shimoli–sharqidagi qo‘ltig‘iga) ishora qiladi.

49:23 *Xomat bilan Arpad ahli* — hozirgi Suriyaning shimolida joylashgan shaharlar. Shimoldan kelgan dushman lashkarlari yo‘l–yo‘lakay bu shaharlarga ham hujum

qilishgan.

49:25 *Quvonch makoni* — qadimiy yunoncha va suryoniycha tarjimalardan. Ibroniycha matnda *Quvonchim makoni*.

49:28 *Navuxadnazar* — 39:1 ning ikkinchi izohiga qarang.

49:28 *Kedar va Xazor* — Arabiston yarim orolining shimolida joylashgan yerlar.

49:32 *Sochini oldirib yurgan…* — 9:26 ning birinchi izohiga qarang.

49:34 *Zidqiyo* — 1:3 ning ikkinchi izohiga qarang.

49:34 *Elam yurti* — bu yurt Bobil yurtidan janubi–sharqda, hozirgi Eron hududida joylashgan edi.

50:1 *Bobilliklar* — ibroniycha matnda *Xaldeylar*, o‘sha vaqtda Bobilliklar shu nom bilan ham atalardi (shu bobning 8, 25, 35–oyatlarida ham bor).

50:2 *…Bel…Mardux…* — Bel Bobilning bosh xudosi edi. Bel Mardux ismi bilan ham tanilgan.

50:5 *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion* (shu bobning 28–oyatida ham bor). 3:14 izohiga qarang.

50:10 *Bobil* — ibroniycha matnda *Xaldey*, o‘sha vaqtda Bobil yurti shu nom bilan ham atalardi (shu bobning 45–oyatida ham bor).

50:11 *…Yaylovdagi buzoqday…* — qadimiy yunoncha va lotincha tarjimalardan. Ibroniycha matnda *…Bug‘doy yanchayotgan ho‘kizday…*.

50:17 *Isroil xalqi* — shimoliy va janubiy shohliklarning xalqi nazarda tutilgan (2:4 izohiga qarang). Shu bobning 20–oyatida esa bu ikkala shohlik “Isroil” va “Yahudo” deb alohida–alohida aytib o‘tilgan.

50:17 *Ossuriya shohi* — Tig‘latpilasarning o‘g‘li Shalmanasar yoki Shalmanasarning vorisi Sargon II nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin (4 Shohlar 17:3-6 ga va o‘sha oyatlarning izohlariga qarang).

50:17 *Navuxadnazar* — 21:2 izohiga qarang.

50:19 *…Karmil…Bashan…Efrayim…Gilad…* — ilgarilari bu yerlar sobiq Isroilga, ya’ni shimoliy shohlikka qarashli edi.

50:21 *Marotayim* — Bobil yurtidagi yerlarning ibroniycha nomi. Bu yerlar Dajla va Furot daryolari kesishgan joydagi Fors qo‘ltig‘i yaqinida joylashgan. Ibroniychada Marotayim nomi *ikki barobar itoatsiz* degan ma’noni bildiradi, bu oyatda Bobil shu nom bilan ta’riflanadi.

50:21 *Paxo‘d* — Bobil yurtining janubi–sharqida yashagan xalqning nomi. Ibroniychada Paxo‘d nomining ma’nosi *jazo* bo‘lib, bu oyatda Bobil xalqining qismatiga ishora qiladi.

50:40 *Sado‘m, G‘amo‘ra…* — 23:14 izohiga qarang.

50:42 *qiz* — 4:31 izohiga qarang.

51:1 *uning aholisi* — ibroniycha matnda *Leb–qamay*, Bobil aholisiga nisbatan ishlatilgan yana bir nom.

51:4 *Bobil* — ibroniycha matnda *Xaldey*, o‘sha vaqtda Bobil yurti shu nom bilan ham

atalardi (shu bobning 54–oyatida ham bor).

51:7 *mast* — bu oʻrinda sharob Xudo gʻazabining ramzi boʻlib, sharobdan mast boʻlish Xudoning hukmiga duchor boʻlishni bildiradi (25:15-29 ga va Ishayo 51:17-23 ga qarang).

51:10 *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion* (shu bobning 35–oyatida ham bor). 3:14 izohiga qarang.

51:11 *Midiya shohlari* — Midiya shohligiga qarashli kichkina shohliklar. Bu shohliklar Bobil yurtidan shimoli–sharqda joylashgan edi (yana shu bobning 27–oyatiga va oʻsha oyatning izohiga qarang). Ular Forslarga qoʻshilib, Bobilga hujum qilgan edilar.

51:13 *Hayoting ipi uzildi* — oʻlimni bildiruvchi ibora. Ishayo 38:12 ga qarang.

51:14 *Chigirtkaday* — 46:23 izohiga qarang.

51:24 *Bobilliklar* — ibroniycha matnda *Xaldeylar*, oʻsha vaqtda Bobilliklar shu nom bilan ham atalardi (shu bobning 35–oyatida ham bor).

51:27 *Ararat, Minnax va Ashkanoz shohliklari* — Bobil yurtidan shimolda joylashgan boʻlib, Midiya shohligiga qaram edi (shu bobning 28–oyatiga qarang).

51:32 *...Toʻqaylarga oʻt qoʻyildi...* — qochgan odamlar baland qamishlar orasiga yashirinishardi.

51:33 *Qiz* — 4:31 izohiga qarang.

51:33 *...u yanchiladi* — donni boshoqdan ajratish jarayoni yanchish deyiladi. Qadimgi Yaqin Sharqda bu ish don boshoqlarini tayoq bilan urish, ustidan tepkilash yoki xoʻptir yurgizish orqali bajarilgan (xoʻptir — ostiga uchli tosh yoki temir mahkamlangan ogʻir taxta). Yanchish soʻzi koʻpincha Eski Ahdda hukmga yoki urushda halokatga duchor boʻlishga nisbatan koʻchma maʼnoda ishlatilgan.

51:34 *Navuxadnazar* — 21:2 izohiga qarang.

51:35 *tanam* — yoki *men va qarindoshlarim*.

51:39 *mast* — shu bobning 7–oyati izohiga qarang.

51:41 *Bobil* — ibroniycha matnda *Shashax*, Bobilga nisbatan ishlatilgan yana bir nom.

51:44 *Bel* — Bobilning bosh xudosi edi. Mardux ismi bilan ham tanilgan.

51:59 *Zidqiyo hukmronligining toʻrtinchi yili* — miloddan oldingi 593 yil (1:3 ning ikkinchi izohiga qarang).

51:60 *oʻrama qogʻoz* — 30:2 izohiga qarang.

52:1 *Zidqiyo yigirma bir yoshida shoh boʻldi...* — miloddan oldingi 597 yil (1:3 ning ikkinchi izohiga qarang). Shoh Navuxadnazar Yohayixinni Bobilga surgun qilgandan keyin Yahudo taxtiga Zidqiyoni oʻtqizdi (37:1 va 4 Shohlar 24:8-17 ga qarang).

52:1 *Yeremiyo* — Yeremiyo paygʻambardan boshqa odam.

52:4 *Zidqiyo hukmronligining toʻqqizinchi yili oʻninchi oyi* — miloddan oldingi 589 yilning oʻninchi oyi. Ibroniy kalendarining Tabat oyi nazarda tutilgan. Hozirgi kalendarga koʻra, bu oy taxminan dekabrning oʻrtasidan boshlanadi.

52:4 *Navuxadnazar* — 21:2 izohiga qarang.

52:4 *qamal inshootlari* — 33:4 izohiga qarang.

52:5 *Zidqiyo hukmronligining o‘n birinchi yili* — miloddan oldingi 586 yil.

52:6 *To‘rtinchi oy* — ibroniy kalendarining Tammuz oyi nazarda tutilgan. Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan iyunning o‘rtasidan boshlanadi.

52:7 *Bobilliklar* — ibroniycha matnda *Xaldeylar*, o‘sha vaqtda Bobilliklar shu nom bilan ham atalardi (shu bobning 17–oyatida ham bor).

52:7 *Iordan vodiysi* — ibroniycha matnda *Araba*. Araba umumiy geografik nom bo‘lib, bu oyatda Iordan vodiysining bir qismiga, aynan O‘lik dengizning shimolidagi yerlarga nisbatan ishlatilgan.

52:8 *Bobil* — ibroniycha matnda *Xaldey*, o‘sha vaqtda Bobil yurti shu nom bilan ham atalardi (shu bobning 14–oyatida ham bor).

52:9 *Rivlo shahri* — bu shahar Orontes daryosi bo‘yida, hozirgi Suriya hududida joylashgan edi.

52:12 *Navuxadnazar hukmronligining o‘n to‘qqizinchi yili beshinchi oyi* — miloddan oldingi 586 yil. Oyatdagi voqea Quddus qulagandan keyin bir oy o‘tgach yuz bergan edi (shu bobning 6-7–oyatlariga va 6–oyatning izohiga qarang).

52:15 *qolgan–qutgan hunarmandlar* — Navuxadnazar bundan o‘n bir yil oldin, ya’ni miloddan oldingi 597 yilda, ko‘p hunarmandlarni o‘zi bilan Bobilga olib ketgan edi (4 Shohlar 24:12-16 ga qarang).

52:17 *...bronza ustunlarni, aravalarni, bronza hovuzni...* — 3 Shohlar 7:15-39 ga qarang.

52:20 *...hovuzga, hovuz ostidagi o‘n ikkita buqaga va aravalarga...* — qadimiy yunoncha tarjimadan (yana 3 Shohlar 7:25 ga qarang). Ibroniycha matnda *...hovuzga, aravalar ostidagi o‘n ikkita buqaga*....

52:21 *...balandligi 18 tirsak, tevaragi 12 tirsak...* — balandligi taxminan 8,1 metrga, tevaragi taxminan 5,4 metrga to‘g‘ri keladi.

52:22 *5 tirsak* — taxminan 2,3 metrga to‘g‘ri keladi.

52:22 *anor* — qadimgi paytlarda hayot ramzi edi.

52:28 *Hukmronligining yettinchi yili* — miloddan oldingi 597 yil.

52:29 *o‘n sakkizinchi yili* — miloddan oldingi 586 yil.

52:30 *yigirma uchinchi yili* — miloddan oldingi 581 yil.

52:31 *...Bobil taxtiga Evilmardux o‘tirdi* — u Navuxadnazarning o‘g‘li bo‘lib, miloddan oldingi 562-560 yillarda Bobilda hukmronlik qilgan.

52:31 *o‘n ikkinchi oy* — ibroniy kalendarining Adar oyi nazarda tutilgan. Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan fevralning o‘rtasidan boshlanadi.

YEREMIYO
PAYG‘AMBARNING
MARSIYASI

Kirish

Mazkur kitob miloddan oldingi 586 yilda Quddusning qulashi va Yahudo xalqining Bobilga surgun qilinishi munosabati bilan yozilgan. Kitob beshta she’riy to‘plamdan, ya’ni besh bobdan tashkil topgan. Chuqur qayg‘u ifodasi bo‘lgan bu she’rlar marsiya deb ataladi. Mazkur she’rlar Quddus shahri nomidan va “payg‘ambar” deb atalgan kitob muallifi nomidan bayon qilingan. Bu kitob muallifi Yeremiyo payg‘ambardir.

Quddus o‘z gunohlari uchun jazo tortayotganini Yeremiyo payg‘ambar tan oladi, lekin u Quddus va Ma’bad vayron bo‘lganidan, Yahudo aholisi asirlikka olib ketilganidan qattiq qayg‘uradi. Biroq umid uchqunlari o‘shanday musibatli damlarda ham o‘chmaydi. Kitob muallifi Xudoning ezguligiga, sevgisiga va sadoqatiga qattiq ishonadi. U Xudoga yolvorib, xalqqa rahm–shafqat qilishini so‘raydi.

1–BOB

Quddusning boshiga kelgan kulfat

1 Voy sho‘rim!
Odamlarga to‘lib–toshgan bir vaqtlar,
Naqadar yolg‘izdir endi bu shahar!
Xalqlar orasida shuhrat qozongan,
Endi bir beva ayolga u o‘xshab qolgan.
U viloyatlar orasida malikaday edi,
Endi u bir cho‘riga o‘xshab qoldi.

2 Kechalari u achchiq–achchiq yig‘laydi,
Ko‘zlaridan yoshlar oqadi.
Uni yupatadigan biron kimsa
Yo‘qdir o‘ynashlarining orasida.
Do‘stlari unga xiyonat qilishdi,
Unga dushman bo‘lib qolishdi.

3 Yahudo* xalqi surgun bo‘lib, azoblar tortdi,
Tutqunlikning mashaqqatini u totib ko‘rdi.
Begona xalqlar orasida o‘rnashganda,
O‘ziga orom topa olmadi.
U tang ahvolga tushib qolganda,
Ta’qib etuvchilar uni qo‘lga oldi.

4 Quddusga* boradigan yo‘llar tutyapti motam,
Axir, belgilangan bayramlarga kelmas biror ham odam.

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

Shaharning hamma darvozalari huvullab qoldi,
Ruhoniylari xo‘rsinib o‘tiribdi.
Qudduslik qizlar* qayg‘uga botgan,
Quddusning o‘zi ham iztirobda qolgan.

5 Quddusga dushmanlari bosh bo‘ldi,
Uning g‘animlari ravnaq topdi.
Quddus behad ko‘p gunoh qildi,
Shu sababdan Egamiz uni azobga soldi.
Quddusning farzandlari surgun qilindi,
G‘animlari ularni olib ketdi.

6 Qiz* Quddus o‘z savlatini yo‘qotdi.
Yo‘lboshchilari o‘tloq topa olmagan kiyikka o‘xshaydi.
Ovchidan qochishga ularning madori qolmadi.

7 Kulfatu sargardonlik kunlarida
Quddus oldingi xazinalarini esladi.
Uning aholisi dushmanlarga* taslim bo‘lganda,
Quddusga yordam beradigan hech kim yo‘q edi.
G‘animlari uning qulashini tomosha qilib,
Quddusni masxara qilardi.

8 Ha, Quddus jirkanch gunohga qo‘l urdi,
Atrofdagilarga u kulgi bo‘ldi.
Oldin uni e’zozlaganlarning hammasi
Endi undan hazar qiladi.
Quddusning sharmandaligini ular ko‘rdilar.
Mana endi Quddus xo‘rsinib o‘tiribdi,
Hammadan yuzini yashirib o‘tiribdi.

9 Uning nopokligi kiyimini dog‘ qildi,
Kelajagi haqida u qayg‘urmadi.
U dahshatli tarzda quladi,
Uning yupatuvchisi yo‘q edi.
U shunday deb yolvordi:
“Kulfatimga bir nazar solgin, ey Egam,
Zero, dushmanlarim g‘olib keldi ustimdan!”

10 G‘animlar Quddus xazinalariga chang soldi.
Quddusning ko‘zi oldida
Begona xalqlar muqaddas makonga kirdi.
Ammo Egamiz o‘sha g‘ayriyahudiylarga
Hatto Isroil jamoasi yig‘inida bo‘lishni man etgandi!*

11 Mana endi shahardagi hamma odamlar xo‘rsinib,

Bir burda nonni izlab yuribdi.
Ular boyliklarini sotib, ovqat olishyapti,
Shu yoʻsin oʻz jonlarini saqlashyapti.
Quddus shunday deb yolvormoqda:
“Ey Egam, menga bir boqqin,
Xor boʻlganimni koʻrib qoʻygin!”

12 Quddus oʻtgan–ketganlarga xitob qiladi:
“Nahotki sizlarga baribir boʻlsa?!*
Menga bir qaranglar! — deb yolvoradi. —
Egamiz gʻazab kunida menga azob bergan,
Bunday azobni hech kim koʻrmagan.

13 U osmondan olov yubordi,
Oʻsha olov ichimni yondirdi.
Egamiz oyogʻimga tuzoq qoʻydi,
Meni ortga qaytishga majbur qildi.
Adoyi tamom qildi meni Xudoyim,
Azobu alamda qoldi mening jonim.

14 Gunohlarim boʻyinturuqqa aylangan,
Oʻsha boʻyinturuqni Egamizning Oʻzi yasagan.
U gunohlarimni* boʻynimga osdi.
Meni tamom holdan toydirdi.
Rabbiy berdi meni dushmanlarim qoʻliga,
Men qarshilik qila olmayman ularga.

15 Rabbiy kuchli jangchilarimni rad etdi,
Yigitlarimni yakson qilish uchun lashkar yubordi.
Bokira qiz Yahudoni* Rabbiy uzum ezganday ezdi*.

16 Shuning uchun men faryod qilaman,
Koʻz yoshimni sel–sel oqizaman.
Axir, yupatuvchim mendan uzoqda,
Jonimga oro kiruvchi olisda.
Evoh, dushmanlarim mendan gʻolib keldi,
Farzandlarim xonavayron boʻldi.”

17 Quddus qoʻllarini choʻzib yordam soʻraydi,
Biroq hech kim uni yupatmaydi.
Egamiz qoʻshni xalqlarga amr berdi,
Shunda hammasi Yoqub nasliga dushman boʻlib qoldi.
Dushmanlarining nazarida
Quddus axlatday jirkanch boʻlib qoldi.

18 Quddus aytmoqda:

“Ha, mening Egam haq,
Axir, o‘zim Uning amriga qarshi bosh ko‘tardim.
Ey xalqlar, menga quloq soling,
Mening kulfatimni ko‘rib qo‘ying.
Mening yigit–qizlarim surgun bo‘ldi.

19 Men o‘ynashlarimni chaqirdim,
Ular esa meni aldashdi.
Jonini saqlash uchun non izlagan
Ruhoniyu oqsoqollarim ko‘chalarda jon berdi.

20 Ey Egam, ko‘rib qo‘ygin qayg‘umni,
Ko‘rgin to‘kilib turgan yuragimni.
Evoh, yurak–bag‘rim ezilib ketdi,
Axir, men Senga qarshi bosh ko‘tardim.
Ana, tashqarida qilich odamlarni chopyapti,
Ichkarida o‘lim hukmronlik qilyapti.

21 Odamlar ohu nolalarimni eshitdi,
Biroq mening yupatuvchim yo‘q edi.
G‘animlarim eshitdi kulfatlarim haqida,
Xursand bo‘lishdi qilgan ishingdan shunda.
Sen e’lon qilgan o‘sha kuning kelsin,
Dushmanlarim ham mening holimga tushsin.

22 Nazaringdan qochmasin ularning qilgan qabihliklari,
Gunohim uchun meni jazolaganday jazolagin ularni.
Ko‘pdir mening ohu nolalarim,
Hech ham qolmadi mening madorim.”

2–BOB

Egamiz Quddusni jazolaydi

1 Voy sho‘rim!
Rabbiy g‘azablanib,
Qiz* Quddusni* zulmat bilan qopladi,
U Isroilning salobatini
Osmondan yerga uloqtirdi.
Qattiq qahri kelganda,
O‘z poyandozi bo‘lgan Ma’badini esga olmadi.

2 Rabbiy ayovsiz vayron qildi
Yoqub naslining maskanlarini.
G‘azabi kelib yakson qildi
Qiz Yahudoning* qal’alarini.
Oyoq osti qilib, xo‘rladi

Shohlikni va uning hukmdorlarini.

3 U qattiq g‘azabga minib,
Isroilning bor qudratini yo‘q qildi*.
G‘animlar hujum qilganda,
O‘z xalqini himoya qilmadi.
Avjiga chiqqan olov yondirganday,
Yoqubning yurtini yondirib yubordi.

4 U g‘animday bizga qarata yoyini tortdi,
O‘q uzishga Uning qo‘li tayyor turardi.
U kelishgan yigitlarimizni dushmanday o‘ldirdi.
Qiz Quddusning chodirlariga olovday qahrini sochdi.

5 Rabbiy dushmanga o‘xshab qoldi,
Isroil yurtini vayron qildi.
Xarob qildi barcha saroylarini,
Yakson etdi Isroil qal’alarini.
Qiz Yahudoga keltirdi g‘am–g‘ussa,
Uning qayg‘usini orttirdi ming hissa.

6 Bog‘dagi chaylani yiqitganday,
Ma’badini U buzib tashladi*.
Quddusdagi bayram va Shabbat kunlarini
Egamiz bekor qildi.
Shohlar va ruhoniylarni
G‘azab ustida rad etdi.

7 Rabbiy O‘z qurbongohidan voz kechdi,
O‘z maskanini tashlab ketdi.
Quddus saroylarini yovning qo‘liga berdi.
Egamiz uyidagi yovning hayqirig‘i
Bayramdagi shodon ovozlarga o‘xshaydi.

8 Ha, Egamiz qiz Quddusning devorlarini
Vayron etishga qaror qildi.
Devorlarga birma–bir qarab chiqdi,
Shashtidan qaytmadi, hammasini yakson qildi.
Endi qal’ayu devorlar qayg‘uryapti,
Hammasi xarob bo‘lib yotibdi.

9 Quddus darvozalari tuproqqa belanib yotibdi,
Darvoza tambalari parchalanib yotibdi.
Shohu amaldorlari surgun bo‘lishdi,
Qonunlar xalqqa o‘rgatilmas endi.
Egamizdan vahiylar

Payg‘ambarlarga kelmas endi.

10 Qiz Quddusning oqsoqollari
Sukut saqlab yerda o‘tiribdi.
Boshlaridan ular tuproq sochgan,
O‘zlari qanorga o‘rangan*.
Boshlarini solib quyi
O‘tiribdi Quddus qizlari.

11 Yig‘layverib ko‘zlarim tolgan,
Ichimda yuragim to‘kilib ketgan.
Jigar–bag‘rim ezilib ketdi,
Axir, mening xalqim qirilib ketdi!
Och qolgan go‘dagu chaqaloqlar
Shahar ko‘chalarida hushsiz yotibdi!

12 “Qornim ochdi! Chanqadim!” deb
Onalariga ular faryod qilar.
Yarador jangchiday shahar ko‘chalarida hushsiz yotishar.
Onalarining bag‘rida jon taslim etishar.

13 Sen haqingda nima aytay?!
Seni kimga solishtiray, ey qiz Quddus?
Nima deb yupatay?!
Seni kimlarga o‘xshatay, ey bokira qiz Sion?
Dengizday cheksizdir sening kulfating,
Endi shifo bera olmas senga hech kim!

14 Sening payg‘ambarlaring
Yolg‘on va behuda vahiylar aytishdi.
Gunohlaringni fosh qilishmadi,
Surgunning oldini olishmadi.
Yolg‘on bashoratlar aytib,
Seni yo‘ldan ozdirishdi.

15 O‘tgan–ketganlar sendan or qilib,
Qo‘l siltab ketadilar.
Yoqasini ushlab, boshlarini chayqaydilar,
Ey qiz Quddus, seni mazax qilib shunday deydilar:
“Go‘zallikda komil shaharmi shu?!
Butun dunyoning sevinchimish u!”

16 Barcha yovlaring ustingdan kuladi,
Holingni ko‘rib yoqasini ushlaydi.
Tishlarini g‘ijirlatib aytishadi:
“Biz uni yamladik!

Voh, qanday intizorlik bilan
Bu kunni kutgan edik!
Nihoyat, o‘sha kunga yetdik!”

17 Evoh, Egamiz O‘z rejalarini amalga oshirdi,
O‘z aytganlarini bitta qoldirmay bajardi.
U azaldan ogohlantirib kelganday
Sizlarni ayovsiz qirib tashladi.
G‘animlarning qudratini* yuksaltirdi,
Ahvolingizdan dushmanlarni xursand qildi.

18 Shahar ahlining qalbi Rabbiyga faryod qilmoqda,
Ey qiz Quddusning devorlari!
Ko‘z yoshingiz kechayu kunduz daryo bo‘lib oqsin.
Nolayu faryodingiz aslo tinmasin,
Ko‘z yoshingiz to‘xtamasin!

19 Tur, ey qiz Quddus!
Kechasi bilan Xudoga iltijo qilib chiqqin!
Yuragingni Rabbiyga suvday to‘kib solgin!
Qo‘llaringni uzat osmonga,
Farzandlaring uchun yolvorgin Unga!
Axir, ular ochlikdan hushsiz yotibdi
Har bir ko‘chaning boshida.

20 Shunday ibodat qilgin:
“Ey Egam, ko‘rmaysanmi buni:
Ne ko‘ylarga solib qo‘yding Sen xalqingni?!
Onalar erkalatib o‘stirgan farzandlarini yeyishyapti–ku!
Ruhoniyu payg‘ambarlar maskaningda qirilib ketyapti–ku!

21 Yoshu qarilarning jasadlari ko‘chada changga belanib yotibdi.
Qilich dastidan yigitu qizlarim juvonmarg bo‘ldi.
Sen g‘azabing kelgan kuni ularni halok qilding,
Ayovsiz ularni qirib tashlading.

22 Menga qarshi yig‘ding Sen tevarakdagi yovlarni,
Go‘yo ziyofatga chaqirganday taklif qilding ularni.
O‘sha kuni Sening g‘azabingdan hech kim qutulolmadi,
Biror odam o‘z jonini saqlab qololmadi.
Evoh, erkalab o‘stirgan bolalarimni*
Dushmanlarim o‘ldirdi.”

3–BOB

Umid uchqunlari

1 Azoblarda qolgan insonman,
Xudoning g‘azabi tufayli tayoq yedim.
2 Boshlab bordi Egam meni zulmatga,
Nur tushmaydigan qorong‘i joyga.
3 Yolg‘iz menga qarshi U qo‘l ko‘tardi,
Kun bo‘yi meni qayta–qayta jazoladi.

4 Qaritib yubordi etu terimni,
Sindirib tashladi suyaklarimni.
5 G‘am–alamga meni tutqun qildi,
Jabru jafo zindoniga meni tashladi.
6 Majbur qildi meni zimistonda yashashga,
O‘xshab qoldim men ancha oldin o‘lgan odamga!

7 Qochib ketmasin deya, Xudo atrofimni qurshadi,
Og‘ir zanjirlar bilan meni kishanband etdi.
8 Yordam so‘rab yolvorsam ham men Unga,
Quloq solmas U mening fig‘onimga.
9 Yo‘nilgan toshlar bilan U yo‘limni to‘sdi,
Yurgan yo‘limni chalkashtirib yubordi.

10 Poyladi U meni ayiqday,
Tashlanmoqchi bo‘ldi menga sherday.
11 So‘ng meni sudradi bir chetga,
G‘ajidi, solib ketdi tang ahvolga.
12 Xudo O‘z yoyini tortdi,
O‘qlariga meni nishon qildi.

13 Sadog‘idagi o‘qlari bilan yuragimni teshdi.
14 Mana endi o‘z xalqim ustimdan kulmoqda,
Uzzukun ular meni mazax qilib, qo‘shiq kuylamoqda.
15 Xudo menga achchiq o‘tdan yedirdi,
Zaharli suvdan menga ichirdi.

16 Meni oyoq osti qilib, tuproqqa beladi,
Shag‘al yedirib, tishlarimni sindirdi.
17 Tinchlik bilmas endi mening jonim,
Baxt nimaligini tamom unutdim,
18 Shunda o‘zimga dedim: “Adoyi tamom bo‘ldim!
Barbod bo‘ldi Egamga bo‘lgan umidim!”

19 Kulfatu sargardonlik haqidagi o‘ylarim
Zaharli suvga, achchiq o‘tga o‘xshaydi.

20 Bunday oʻylarga tolgan mening jonim
Tushkunlikka tushdi.
21 Biroq men bir narsani yodda tutarman,
Shuning uchun doim umid qilarman:

22 Egamning sodiq sevgisi boʻlmaydi ado*,
Uning rahmu shafqati tugamas aslo.
23 Har tong ular yangilanadi,
Buyukdir Egamning sadoqati!
24 Qalbimda aytaman: “Egamdir mening bor–yoʻgʻim,
Shunday ekan, yolgʻiz Undadir mening umidim.”

25 Egamiz Oʻziga umid bogʻlaganlarga yaxshilik qiladi,
Unga intilgan har bir jonga ezguligini koʻrsatadi.
26 Egamizning najotini toqat ila kutish yaxshidir.
27 Yoshlikdan tarbiyaga boʻysunish yaxshidir.

28 Rabbiy tarbiyalaganda,
Yolgʻiz oʻtirib, sukut saqlaylik.
29 Bunday vaqtlarda yer oʻpib ta’zim qilaylik,
Axir, yana umid bordir.
30 Tarsaki yeganimizda qarshilik qilmaylik,
Eshitgan koʻp haqoratlarni ichimizga yutaylik.

31 Zero, Rabbiy bizni abadiy tashlab qoʻymaydi!
32 Uning Oʻzi bizga qaygʻu keltirgan boʻlsa–da,
Oʻzi bizga rahm–shafqat qiladi.
Axir, Uning sodiq sevgisi buyukdir!
33 Ha, U insonga gʻam keltirib, ozor berishni xush koʻrmaydi.

34 Yurtdagi hamma asirlarning oyoq osti boʻlganini,
35 Odamlar haq–huquqdan mahrum boʻlganini
Xudoyi Taolo koʻrib turibdi.
36 Bir yoqlama hukm chiqarilganini
Rabbiy bilib turibdi.

37 Rabbiyning ijozatisiz,
Hech kimning buyrugʻi bajo boʻlmas.
38 Yaxshilik ham, yomonlik ham
Xudoyi Taoloning amrisiz sodir boʻlmas.
39 Hanuz hayot ekanmiz,
Gunohimiz uchun jazo tortganda nolimaylik!

40 Tutgan yoʻllarimizni yaxshilab tekshiraylik,
Egamizga qaytaylik.
41 Qoʻllarimizni osmonga choʻzib,

Chin dildan samodagi Xudoga yolvorib aytaylik:
42 “Ey Egamiz! Biz itoatsizlik qildik,
Senga qarshi bosh ko‘tardik,
Sen bizni kechirmading.

43 Sen g‘azabga minib, ta’qib qilding bizni,
Shafqatsiz qirding hammamizni.
44 Iltijolarimiz Senga yetib bormasligi uchun
Bulutlar bilan oldingni to‘sding.
45 Sen bizni axlatday tashlab yubording,
Xalqlar orasida supurindiday qilding.

46 Mana, barcha yovlarimiz ustimizdan kulyapti.
47 Biz vahimaga tushdik, tuzoqqa ilindik,
Falokatu halokatga giriftor bo‘ldik.”

48 Sel–sel bo‘lib oqar mening ko‘z yoshlarim,
Axir, qirilib ketdi mening xalqim!
49-50 Egamiz samodan bizga qaramaguncha,
Men to‘xtamay obi diyda qilaman,
Tinmay ko‘z yosh to‘kaman.
51 Quddusdagi hamma qizlarning qismati
Yurak–bag‘rimni ezib yubordi!

52 Sababsiz dushmanlik qilayotir menga odamlar,
Qushni ovlaganday meni ovladi ular.
53 Meni tiriklayin chuqurlikka tashlashdi,
Chuqurlik og‘zini tosh bilan berkitishdi.
54 Suvlar ko‘tarilib oshdi boshimdan,
“Ado bo‘ldim” dedim ichimda.

55 Ey Egam, chuqurlik tubidan
Senga iltijo qildim.
56 “Dodimni tingla, berkitma qulog‘ingni!” dedim.
Sen eshitding bu iltijoimni.
57 Yolvorganimda Sen menga yaqinlashding,
“Qo‘rqma!” deb o‘shanda menga aytding.

58 Yo Rabbiy, Sen da’voimni himoya qilding,
Mening jonimni xalos etding.
59 Ko‘rding menga qilingan nohaqlikni,
Ey Egam, O‘zing yoqlagin meni.
60 Yovlarimning til biriktirganini Sen ko‘rding,
Menga qarshi qilgan yovuz niyatlarini bilding.

61 Ey Egam, ular meni mazax qilganini O‘zing eshitding,

Menga qarshi til biriktirganini bilding.
62 G‘animlarim meni g‘iybat qilar,
Kun bo‘yi menga piching otar!
63 Qara, ular o‘tirsa ham, tursa ham,
Meni mazax qilib, qo‘shiq kuylashar.

64 Ularning qilmishlariga yarasha,
Jazosini bergin, ey Egam!
65 Yuraklariga g‘ulg‘ula solgin,
Ularni la’natga duchor qilgin,
66 G‘azab bilan ularning ketidan quvla,
Yer yuzidan tamomila yo‘q qilib tashla!

4–BOB

Quddusning qamaldagi qismati

1 Voy sho‘rim!
Oltin xira tortdi,
Sof tilla jilosini yo‘qotdi.
Har bir ko‘cha boshida
Ma’bad toshlari sochilib yotibdi.

2 Quddusning* aziz farzandlari
Oltindan ham qadrli edi,
Evoh, endi esa ular
Kulol yasagan sopol idishday
Qadrsiz bo‘lib qoldilar.

3 Hatto chiyabo‘rilar
O‘z bolalarini emizishar.
Mening xalqim esa tuyaqushga o‘xshab qoldi*,
Ular o‘z farzandlariga shafqat qilmaydi.

4 Chaqaloqlar juda chanqagan
Tillari tanglayiga yopishib qolgan,
Non so‘rab, yosh bolalar tilanchilik qilyapti,
Biroq hech kim ularga bir burda ham non bermaydi.

5 Tansiq taomlar yegan odamlar
Endi ko‘chalarda ochlikdan o‘lyaptilar.
Qimmatbaho libos kiyib o‘sganlar
Endi kul uyumlari orasida yotibdilar.

6 Sado‘m shahriga* qarshi inson qo‘li ko‘tarilmadi,
Ammo bu shahar bir zumda vayron bo‘ldi.
Xalqimning tortgan jazosi

Sado‘mning jazosidan ham og‘irroq bo‘ldi.

7 Sutdan ham oq, qordan ham oppoq edi
Yo‘lboshchilarimizning ko‘ngillari,
Marjonday tovlanardi sog‘lom tanalari,
Yoqutday ko‘rkam edi ko‘rinishlari.

8 Endi tanib bo‘lmas ularni ko‘chalarda,
Ularning yuzlari kuyadan ham qoraroq tusda.
Bujmaygan terilari suyaklarga yopishgan,
Tarashadan ham battar qurib–qaqshab ketgan.

9 Qilich tig‘idan nobud bo‘lganlar
Baxtliroqdir ochlik qurbonlaridan.
Zero, qahatchilikka* duchor bo‘lganlar
Jonlarini asta–sekin taslim qilarlar.

10 Mehribon onalar tuqqan bolalarini
O‘z qo‘llari bilan pishirdilar.
Xalqim halokatga uchraganda,
Bolalari ularga yemish bo‘ldi.

11 Egamizning qahr–g‘azabi qaynadi,
U achchiq qahrini sochdi,
Quddus shahrida olov yondirdi,
Olov shaharni poydevorigacha kuydirdi.

12 Dushman Quddus darvozalarini yorib o‘tishiga
Yer yuzidagi hukmdorlar ishonmaganlar.
Jahondagi odamlar buni hatto xayoliga ham keltirmaganlar.

13 Shahardagi payg‘ambarlarning gunohi,
Ruhoniylarning jinoyatlari bunga sabab bo‘ldi.
Axir, ular shaharda solih odamning qonini to‘kdilar.

14 Ha, ular o‘z kiyimini qonga bulg‘adilar,
Ularning kiyimidan odamlar hazar qiladilar.
Ko‘r odamday bu yo‘lboshchilar
Ko‘chalarda daydib yuribdilar.

15 “Yo‘qol, harom!” deb baqiradi hamma ularga,
“Yo‘qollaring! Yo‘qol! Tega ko‘rmang sizlar bizlarga!”
Qochib, g‘aribu musofir bo‘lib yurganda ular,
“Bu yerdan chiqib ketinglar”, deb xalqlar ularni haydar.

16 Egamizning O‘zi tarqatib yubordi ularni,
Bu yo‘lboshchilarga endi U nazar solmaydi.

Ruhoniylarga hech kim hurmat koʻrsatmaydi,
Oqsoqollarga hech kim marhamat qilmaydi.

17 Behuda kutaverib madad,
Toldi bizning koʻzimiz,
Madad bera olmaydigan bir xalqqa*
Umid bogʻlagan ekanmiz.

18 Har bir qadamimizni poyladi yovimiz,
Oʻz koʻchalarimizda yurolmadik biz.
Bor–yoʻgʻi sanoqli kunimiz qoldi.
Bizning umrimiz poyoniga yetdi.

19 Bizni taʼqib qiluvchilar
Burgutdan ham tezroq uchishardi,
Ular togʻlarda bizni ovlashardi,
Choʻllarda bizni poylashardi.

20 Egamiz tanlagan shoh* ularning tuzogʻiga ilindi,
Evoh, hayotimiz manbai u edi.
Biz shohimiz soyasida
Xalqlar orasida yashaymiz, deb oʻylagandik.

21 Ey Uz yurtida* yashovchi qiz* Edom*,
Xursand boʻl, shodlan!
Biroq sen ham jazo kosasidan* ichasan,
Mast boʻlib kiyimingni yechasan.

22 Ey qiz Quddus, jinoyatlaring uchun
Sen jazoingni tortib boʻlding.
Endi Egamiz seni surgunda ushlab turmaydi.
Ey qiz Edom, sening gunohlaringni esa
Egamiz fosh qiladi,
Jinoyatlaring uchun U seni jazolaydi.

5–BOB

Rahm–shafqat iltijosi

1 Ey Egam, boshimizga tushgan koʻrgilikni yodingda tutgin,
Qanchalar xor boʻlganimizni bir koʻrib qoʻygin!

2 Mulk qilib olgan yerimiz ajnabiylar qoʻliga tushdi,
Kelgindilar uylarimizga ega boʻlishdi.

3 Otasiz yetimday boʻlib qoldik biz,
Bevaga oʻxshab qoldi onalarimiz.

4 Biz ichgan suvimizga pul to‘laymiz,
Yoqqani o‘tinni sotib olamiz.

5 Yovlarimiz ta’qib qilib, qo‘ymas bizni holimizga,
Charchab ketdik, tinim yo‘q bizga.

6 To‘yguncha non yeymiz deb,
Misr va Ossuriya bilan biz sulh tuzdik.

7 Ajdodlarimiz gunoh qilib, o‘tib ketdi,
Ammo ularning jazosini biz tortyapmiz endi.

8 Bizga hukmronlik qilayotir qullar,
Ular zulmidan bizni kim qutqarar?!

9 Non izlaymiz jonimizni qo‘yib xavf ostiga,
Chunki kallakesarlar pisib yotibdi dalalarda.

10 Ocharchilik dastidan chiqqan issig‘imiz,
Tandirday qizigan bizning badanimiz.

11 G‘animlarimiz Quddusda* ayollarni zo‘rlashdi,
Yahudo shaharlarida qizlarning nomusiga tegishdi.

12 Qo‘llaridan osishdi yo‘lboshchilarimizni,
Xor qilishdi oqsoqollarimizni.

13 Yigitlar tegirmon toshini tortyapti,
O‘g‘lonlar og‘ir o‘tin ostida gandiraklab qoldi.

14 Shahar darvozasida* oqsoqollar o‘tirmaydigan bo‘ldi,
Yigitlar shodon kuylar chalmaydigan bo‘ldi.

15 Ko‘nglimizni shodlik tark etdi,
O‘yin–kulgimiz azaga aylandi.

16 Boshimizdagi tojimiz tushib ketdi,
Gunoh qildik! Sho‘rimiz quridi!

17 Dardu alamga to‘ldi yuragimiz,
Yig‘layverib xiralashdi ko‘zimiz.

18 Axir, Sion tog‘i* huvullab qoldi,
Chiyabo‘rilar u yerda izg‘ib yuribdi.

19 Sen esa, ey Egam, abadiy hukmronlik qilasan,
Avlodlar osha O‘z taxtingda o‘tirasan.

20 Nechun bizni Sen tamom unutding?

Nechun uzoq vaqtga tashlab qo‘yding?

21 Ey Egam, bizni O‘zingga qaratgin,
Toki Senga qaytaylik.
Qadimgi ulug‘vorligimizni tiklagin.

22 Nahotki Sen bizdan butunlay voz kechding?!
Qahru g‘azabingning had–poyoni bordir, axir?!

IZOHLAR

1:1 Bu kitobning 1-4–boblari ibroniychada muvashshah usulida yozilgan she’rdir. Ibroniy alifbesida 22 ta harf bo‘lgani uchun, mazkur kitobning 1, 2 va 4–boblari 22 ta oyatdan iborat bo‘lib, har bir oyatdagi birinchi so‘z ibroniy alifbesining harflari tartibi bo‘yicha boshlanadi. Kitobning 3–bobida 66 ta oyat bor, har 3 ta oyat bir bandni tashkil qilib, bob jami 22 banddan iborat. Har bir band ibroniy alifbesining harflari tartibi bo‘yicha boshlanadi. Birinchi banddagi oyatlar ibroniy alifbesining birinchi harfi bilan boshlanadi, ikkinchi banddagi oyatlar ibroniy alifbesining ikkinchi harfi bilan boshlanadi va hokazo. Kitobning 5–bobi muvashshah usulida yozilmagan bo‘lsa–da, bob 22 oyatdan iborat.

1:3 *Yahudo* — Yahudo qabilasi Isroilning janubiy qismidagi eng katta qabila edi. Shoh Sulaymon vafotidan keyin shimoldagi o‘nta qabila janubdagi Yahudo va Benyamin qabilalaridan ajralib chiqdi (3 Shohlar 11:26-12:24 ga qarang). Yahudo va Benyamin qabilalari janubiy shohlik deb ataladigan bo‘ldi. Janubiy shohlikning poytaxti Quddus bo‘lib qolaverdi, ularning o‘z hukmdorlari bor edi. Eski Ahdning ba’zi parchalarida Yahudo so‘zi janubdagi ikkala qabilaga nisbatan ishlatilgan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi YAHUDO so‘ziga qarang.

1:4 *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion* (shu bobning 6, 17–oyatlarida ham bor). Eski Ahddagi she’riy parchalarda va payg‘ambarlar bitiklarida Sion so‘zi ko‘pincha Quddus shahriga yoki Xudoning xalqiga nisbatan ishlatilgan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi SION so‘ziga qarang.

1:4 *Qudduslik qizlar* — Ma’baddagi bayram sayillarida ishtirok etadigan qizlar nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin (Zabur 67:25-27 ga qarang).

1:6 *Qiz* — shahar yoki yurt ahliga nisbatan qo‘llangan she’riy usul.

1:7 *dushmanlar* — Bobil bosqinchilari nazarda tutilgan.

1:10 *…Egamiz…man etgandi* — Qonunlar 23:3 ga qarang.

1:12 *Nahotki sizlarga baribir bo‘lsa?!* — yoki *Bunday ko‘rgilik sizlarning boshingizga tushmasin!*

1:14 *gunohlarim* — yoki *yasagan bu bo‘yinturuq*.

1:15 *Bokira qiz Yahudo* — Quddus va uning ahliga nisbatan qo‘llangan she’riy usul.

1:15 *…Rabbiy uzum ezganday ezdi* — qadimgi paytlarda odamlar uzumni qoyatoshga o‘yilgan chuqurga yoki tuproqdan qazilgan, tubiga va atrofiga zich qilib tosh terilgan chuqurga solib, sharbatini siqib olish uchun oyoqlari bilan ezardilar. Sharbat o‘sha chuqurdan yana boshqa bir chuqurga oqib tushardi. Uzum ezish Muqaddas Kitobda ko‘pincha Xudoning odamlar ustidan chiqaradigan hukmiga nisbatan ko‘chma ma’noda ishlatilgan.

2:1 *Qiz* — 1:6 izohiga qarang.

2:1 *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion* (shu bobning 4, 6, 8, 18–oyatlarida ham bor). 1:4 ning birinchi izohiga qarang.

2:2 *Qiz Yahudo* — 1:15 ning birinchi izohiga qarang.

2:3 *...Isroilning bor qudratini yo‘q qildi* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *...Isroilning har bir shoxini kesib tashladi*. Eski Ahdda buqaning shoxi ko‘pincha ko‘chma ma’noda ishlatilib, kuchli hukmdorga yoki harbiy qudratga ishora qilgan.

2:6 *Bog‘dagi chaylani yiqitganday, Ma’badini U buzib tashladi* — yoki *U uzumzor devorini yiqitganday, Ma’bad devorlarini buzib tashladi*.

2:10 *Boshlaridan ular tuproq sochgan, O‘zlari qanorga o‘rangan* — qanor dag‘al qoramtir mato bo‘lib, echki yoki tuya junidan to‘qilgan. Qanorga o‘ranib olish va boshga tuproq sochish umidsizlikni va qayg‘uli holatni ifodalaydi. Ko‘pincha bu harakat Xudodan kechirim so‘rab ibodat qilish va Undan madad tilash bilan birgalikda amalga oshirilgan.

2:17 *qudrat* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *shox*, ya’ni buqaning shoxi. Shu bobning 3–oyati izohiga qarang.

2:22 *bolalarim* — Quddus ahli nazarda tutilgan.

3:22 *Egamning sodiq sevgisi bo‘lmaydi ado...* — ko‘plab ibroniy qo‘lyozmalaridan, qadimiy yunoncha va suryoniycha tarjimalardan. Ibroniycha matnda *Egamning sodiq sevgisi tufayli biz nobud bo‘lmadik...*.

4:2 *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion* (shu bobning 11, 22–oyatlarida ham bor). 1:4 ning birinchi izohiga qarang.

4:3 *...tuyaqushga o‘xshab qoldi...* — moda tuyaqush palapomlariga mehr bermaydigan yomon ona hisoblanadi (Ayub 39:14-16 ga qarang).

4:6 *Sado‘m shahri* — aholisining o‘ta buzuqligi oqibatida Egamiz vayron qilgan shahar (Ibtido 18:16-19:28 ga qarang).

4:9 *...ochlik...qahatchilik...* — miloddan oldingi 589 yilda Bobil lashkari Quddusni qamal qildi. Ikki yarim yil davomida shaharga hech qanday yegulik kirmadi (4 Shohlar 25:1-3 ga va o‘sha oyatlarning izohlariga qarang).

4:17 *bir xalq* — Yahudo xalqining ittifoqdoshi bo‘lgan Misr xalqi nazarda tutilgan.

4:20 *Egamiz tanlagan shoh* — miloddan oldingi 597-586 yillarda hukmronlik qilgan Yahudo shohi Zidqiyo nazarda tutilgan (4 Shohlar 25:1-7 ga qarang).

4:21 *Uz yurti* — O‘lik dengizning janubida joylashgan bo‘lib, o‘sha davrda Edom xalqining qo‘li ostida edi.

4:21 *qiz* — 1:6 izohiga qarang.

4:21 *Edom* — bu yurt O‘lik dengizning janubida joylashgan edi. Edom xalqi azaldan Isroil xalqining dushmani bo‘lib kelgan edi. Bobilliklar Quddusni vayron qilganlarida, Edom xalqi Bobilliklarga yordam bergan edi (Zabur 136:7, Hizqiyol 35:5 va Obodiyo 10-14–oyatlarga qarang). To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi EDOM so‘ziga qarang.

4:21 *jazo kosasi* — Xudo g‘azabining ramzi bo‘lgan sharob kosasiga ishora. Mana shu sharobdan mast bo‘lish Xudoning hukmiga duchor bo‘lishni bildiradi (Ishayo 51:17-23, Yeremiyo 25:15-29 ga qarang).

5:11 *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion*. 1:4 ning birinchi izohiga qarang.

5:14 *Shahar darvozasida…* — qadimgi paytlarda oqsoqollar va obroʻli odamlar shahar darvozasi oldida yigʻilib, hakamlik vazifasini bajarardilar. U yerda turli masalalarni koʻrib chiqib, hal qilardilar.

5:18 *Sion togʻi* — Quddusdagi Maʼbad qurilgan tepalik Sion togʻi deb atalgan. Eski Ahddagi sheʼriy parchalarda va paygʻambarlar bitiklarida Sion soʻzi koʻpincha Quddus shahriga yoki Xudoning xalqiga nisbatan ishlatilgan. Toʻliqroq maʼlumotga ega boʻlish uchun lugʻatdagi SION soʻziga qarang.

HIZQIYOL

PAYG‘AMBARNING KITOBI

Kirish

Hizqiyol ruhoniy edi, Yeremiyo va Doniyor payg‘ambarlar uning zamondoshlari bo‘lgan. U Bobilga asir qilib olib ketildi va o‘sha yerda surgunda bo‘lgan Yahudo xalqi orasida yashadi. U Xudo tomonidan payg‘ambar qilib tayinlandi. U nafaqat Bobilga surgun qilingan Yahudo xalqiga, balki Quddusda qolgan odamlarga ham Xudoning so‘zini va’z qildi. Hizqiyol o‘z faoliyatini miloddan oldingi 593 yillarda boshlab, miloddan oldingi 571 yillarda tugatdi. Bu davr Yahudo shohligining oxirgi yillaridan tortib, to miloddan oldingi 586 yilda Quddus qulagandan keyingi davrni qamrab oladi. Hizqiyol Quddus qulashidan oldin ham, undan keyin ham va’z qilgan. Shuning uchun uning ba’zi va’zlari Xudoning dahshatli hukmidan xabar beradi, boshqa va’zlari esa xalqqa umid bag‘ishlaydi.

Mazkur kitobni beshta asosiy qismga bo‘lish mumkin. Birinchi qismda (1-3–boblar) Hizqiyolga vahiyda ayon bo‘lgan Xudoning ulug‘vorligi tasvirlanadi, shuningdek, Xudo Hizqiyolni payg‘ambar qilib tayinlagani bayon etiladi. Ikkinchi qism (4-24–boblar) o‘z ichiga bir nechta xabarni oladi. Bu xabarlarda Yahudo xalqiga beriladigan jazolar haqida aytiladi, chunki xalq Xudodan yuz o‘girgan edi. Hizqiyol bu xabarlarning aksariyat qismini ikir–chikirigacha tasvirlab, o‘z harakatlari bilan ko‘rsatib beradi. Yahudo xalqi Xudoning tanlangan xalqi bo‘lgani va Ma’bad Quddusda joylashgani bois, xalq muqaddas bo‘lishi va o‘zini pok saqlashi shart edi. Yahudo xalqi Xudodan yuz o‘girganda, Xudo Ma’badini tark etib, xalqini jazolardi.

Kitobning uchinchi qismida (25-32–boblar) Xudo Yahudo yurtining yon–atrofidagi xalqlarni jazolashi to‘g‘risida yozilgan. Kitobning to‘rtinchi qismi (33-39–boblar) Quddus qulagandan keyingi davrni o‘z ichiga oladi. Bu parchadagi so‘zlar umid baxsh etadi. Bu parchada Xudo O‘z xalqini kechirishi, so‘ng ularni Yahudo va Quddusga qaytarib olib kelishi to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

Nihoyat, beshinchi qismda (40-48–boblar) Quddusdagi yangi Ma’bad to‘g‘risida Hizqiyol ko‘rgan vahiy haqida yozilgan. Bu qismda Xudoga sajda qilish qoidalari ko‘rsatilgan. Shuningdek, kelajakda yurt Isroilning o‘n ikki qabilasi orasida qay tarzda bo‘linishi kerakligi haqida batafsil aytib o‘tilgan.

Mazkur kitobdagi qurigan suyaklar to‘g‘risida Hizqiyol ko‘rgan vahiy juda keng tanilgan. Bu vahiyda Xudoning Ruhi suyaklarga jon ato etib, ularni tiriltiradi (37:1-14 ga qarang). Xudo doim O‘z ahdiga sodiq qoladi. U O‘z xalqini gunohlardan poklaydi, ularni tiklaydi, xalqni yuksaltiradi, muqaddas shahar Quddusda O‘z ulug‘vorligini porlatadi.

1–BOB

Xudoning taxti

1-3 Hayotimning o‘ttizinchi yilida*, to‘rtinchi oyning* beshinchi kunida men, Buzi o‘g‘li ruhoniy Hizqiyol*, surgunda yashayotgan odamlar bilan birga Bobildagi* Kavor

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

daryosining bo‘yida edim. Shunda osmon qopqasi ochildi–da, Xudodan menga vahiylar keldi. O‘sha kuni Egamiz menga O‘z so‘zini ayon qildi. Men Egamizning qudratini yaqqol sezib turar edim. Bu voqea shoh Yohayixin surgundaligining beshinchi yilida* sodir bo‘lgan edi.

4 Qarasam, shimoldan bo‘ron turdi. Ulkan bir bulutdan chaqmoq chaqar edi, bulut
atrofi yarqirab turardi. Bulutning olovli markazi sayqallangan misday tovlanardi.
5 O‘shaning o‘rtasida men to‘rtta jonli mavjudotni ko‘rdim. Ular inson qiyofasida edi.
6 Ammo har birining to‘rtta yuzi va to‘rtta qanoti bor edi. 7 Ularning oyoqlari tekis bo‘lib,
buzoqning tuyoqlariga o‘xshash tuyoqlari bor edi. Tuyoqlar yaltiroq bronza kabi
tovlanib turardi. 8 Qanotlari ostida odam qo‘liga o‘xshagan qo‘llari bor edi. 9 Mavjudotlar
bir–biriga orqa o‘girib turar edilar, qanotlarining uchlari bir–biriga tegib turardi. Ular
har tomonga birgalikda yurardilar, yurganlarida burilmas edilar. 10 Mavjudotlarning
yuzlariga kelsak, ular to‘rt xil edi: old tomonida inson yuzi, o‘ng tomonida sher yuzi,
chap tomonida buqa yuzi va orqa tomonida burgut yuzi bor edi. 11 Mavjudotlarning bir
juft qanoti tepaga yoyilgan bo‘lib, yonidagi mavjudotlarning qanotlariga tegib turardi.
Qolgan bir juft qanoti esa tanasini yopib turardi. 12 Mavjudotlar to‘g‘riga qarab yurishar
edi. Ruh ularni qayerga yo‘naltirsa, ular o‘sha yoqqa borishardi, yurganda burilmas
edilar. 13 Jonli mavjudotlarning ko‘rinishi yonayotgan ko‘mirga yoki mash’alaga o‘xshar
edi. Mavjudotlarning orasida olov aylanib yurardi. Bu olov chaqnardi, undan chaqmoq
chaqib turar edi. 14 Mavjudotlarning o‘zlari ham chaqmoq tezligi bilan u yerdan–bu
yerga borib kelishardi.

15 Men to‘rtta mavjudotni tomosha qilib turganimda, mavjudotlar yonidagi
g‘ildiraklarni ko‘rdim. Har bir mavjudotning yonida bittadan g‘ildirak bor edi.
G‘ildiraklar yerga tegib turardi. 16 To‘rtala g‘ildirakning ko‘rinishi va tuzilishi bir xil edi.
Ular qimmatbaho toshday tovlanardi. Har bir g‘ildirakning ichida ko‘ndalangiga
solingan yana bittadan g‘ildirak bor edi. 17 Shu sababdan g‘ildiraklar harakatga
kelganda, to‘rt tomonga yura olar edi, yurganda burilmasdi. 18 G‘ildiraklarning
gardishlari baland va bahaybat edi. Ularning gir aylanasi ko‘zlar bilan qoplangan edi.
19 Jonli mavjudotlar yurganda, yonlaridagi g‘ildiraklar ham harakatga kelardi. Yerdan
ko‘tarilganda, g‘ildiraklar ham ular bilan birga ko‘tarilardi. 20-21 Mavjudotlardagi ruh
g‘ildiraklarda ham bor edi. Shu sababdan ruh mavjudotlarni qayerga yo‘naltirsa,
mavjudotlar o‘sha yoqqa borishardi, g‘ildiraklar ham ular bilan birga harakatga kelardi.
Mavjudotlar yurganda, ular ham yurar edi, to‘xtaganda to‘xtar edi, yerdan ko‘tarilganda
ko‘tarilar edi.

22 Mavjudotlarning boshlari uzra gumbazga o‘xshash bir narsa bor edi, o‘sha narsa
billurdek tovlanardi. 23 Qanotlarini yoygan mavjudotlar gumbaz ostida turar edi.
Ularning qanotlari bir–biriga tegib turardi. Ikkinchi juft qanotlari esa badanlarini yopib
turardi. 24 Ular qanot qoqib uchardilar. Qanot qoqqanlarida chiqqan tovushi shovullagan
dengiz shovqiniday, Qodir Xudoning gumburlagan ovoziday, ulkan lashkarning
shovqin–suroniday edi. Mavjudotlar to‘xtaganlarida qanotlarini yig‘ib olishardi.

25 Ular to‘xtab, qanotlarini yig‘ib oldilar. Shunda boshlari tepasidagi gumbaz uzra bir
ovoz yangradi. 26 Gumbaz ustida zangori yoqutdan yasalgan taxtga o‘xshash bir narsa
bor edi. Taxt ustida inson qiyofasidagi bir Zot o‘tirardi. 27 O‘sha kimsaning belidan
yuqori qismi sayqallangan misday yarqirardi, atrofini olov o‘ragandi. Belidan pastki
qismi esa otash kabi porlardi. Uning butun borlig‘i nur taratib turardi. 28 O‘sha nur

yomg‘irdan keyin bulutlar orasida paydo bo‘ladigan kamalakdek jilvalanardi. Bu yog‘du Egamizning ulug‘vorligini aks ettirardi.

Xudo Hizqiyolni xizmatga chaqiradi

Men buni ko‘rishim bilanoq yerga muk tushdim, so‘ng bir ovoz eshitdim.

2–BOB

1 O‘sha ovoz menga dedi:

— Ey inson*, o‘rningdan tur, Men sen bilan gaplashmoqchiman.

2 Ovoz menga gapirayotganda, Ruh ichimga kirib, meni turg‘izib qo‘ydi. Men gapning davomini tingladim. 3 U menga shunday dedi:

— Ey inson, Men seni itoatsiz Isroil xalqining oldiga yuboraman. Ular Menga qarshi bosh ko‘tarishdi. Ularning o‘zlari ham, ota–bobolari ham shu kungacha Menga qarshi gunoh qilib kelishgan. 4 Bu xalq qaysar va o‘jardir. Men seni ularning oldiga yuboraman. Sen ularga: “Egamiz Rabbiy shunday demoqda”, deb gapirasan. 5 Bu isyonkor xalq gapingga quloq soladimi, yo‘qmi, Men ularning oldiga payg‘ambarni yuborganimni bilib qo‘yishsin. 6 Sen esa, ey inson, ulardan hayiqma, ularning gaplaridan qo‘rqma. Atrofingni yantog‘u tikanaklar o‘rab olsa ham, chayonlar orasida yashasang ham qo‘rqma. Ularning gaplaridan cho‘chima, ularning vajohatidan dahshatga tushma. 7 Bu isyonkor xalq senga quloq soladimi, yo‘qmi, ularga Mening gaplarimni yetkaz. 8 Sen esa, ey inson, bu isyonkor xalqqa o‘xshama. Og‘zingni och. Men senga beradigan narsani yegin.

9 Qarasam, men tomon bir qo‘l cho‘zildi. Qo‘lda bir o‘rama qog‘oz* bor edi. 10 Qo‘l o‘ramni ochib, menga ko‘rsatdi. O‘ramning oldi va orqa tomonlariga marsiya, motam va qayg‘u so‘zlari yozilgan edi.

3–BOB

1 U menga shunday dedi:

— Ey inson, Men senga berayotgan bu o‘rama qog‘ozni* olib yegin. So‘ng Isroil xalqining oldiga borib, aytganlarimni ularga yetkaz.

2 Men og‘zimni ochdim, U menga o‘sha o‘rama qog‘ozni yegani berdi. 3 U menga dedi:

— Qog‘ozning hammasini yeb, qorningni to‘yg‘az.

Men qog‘ozni yedim, uning ta’mi asalday shirin edi. 4 U menga yana shunday dedi:

— Ey inson, endi borib, Isroil xalqiga Mening gaplarimni ayt. 5 Men seni qiyin va murakkab tilda gapiradigan xalq oldiga emas, balki Isroil xalqi oldiga yuboryapman. 6 Agar Men seni tili tushunarsiz bo‘lgan ko‘p xalqlar oldiga yuborganimda edi, ular senga albatta quloq solishgan bo‘lar edi. 7 Ammo Isroil xalqi senga quloq solmaydi, ular hatto Menga ham quloq solishmaydi. Ha, bu xalq qaysar va o‘jardir. 8 Mana qara, Men seni ular kabi qaysar va o‘jar qilaman. 9 Sening boshing toshday qattiq, qayroqtoshdan ham qattiqroq bo‘ladi. Ular isyonkor xalq bo‘lsa–da, sen ulardan cho‘chima, dahshatga tushma.

10 U gapida davom etib shunday dedi:

— Ey inson, senga aytadigan gapimni ikki qulog‘ing bilan yaxshilab eshitib, hammasini dilingga tugib olgin. 11 So‘ng surgundagi yurtdoshlaring oldiga bor. Ular senga quloq soladimi, yo‘qmi, ularga: “Egamiz Rabbiy shunday demoqda”, deb

gaplarimni yetkaz.

12 Ruh meni koʻtardi. Shunda men orqadan kelayotgan qattiq gumburlagan tovushni
eshitdim. Oʻsha tovush: “Egamizning ulugʻvorligini Uning makonida madh qilinglar”, deb
aytayotgan edi*. 13 Men jonli mavjudotlarning bir–biriga ishqalangan qanotlarining
tovushini va yonlaridagi gʻildiraklarning guldurosini eshitdim. 14 Ruh meni boshqa
yoqqa olib ketdi. Men achchiqlanib, jahlim chiqa boshladi. Egamizning qudrati meni
qamrab olgan edi. 15 Men Kavor daryosining boʻyidagi Tel–Ovuvda yashayotgan
surgundagilarning oldiga bordim. Oʻsha yerda yetti kun davomida oʻzimga kela olmay
gangib oʻtirdim.

Hizqiyolni Egamiz soqchi qilib tayinlaydi

16 Yetti kundan keyin Egamiz menga Oʻz soʻzini ayon qildi:

17 — Ey inson, Men seni Isroil xalqiga soqchi qilib tayinladim. Ogʻzimdan chiqqan har
bir gapimni ularga aytib, ogohlantirasan. 18 Agar Men fosiqqa: “Sen albatta oʻlasan”, deb
aytsam–u, sen esa oʻsha odamni bu haqda ogohlantirmasang, hayotini saqlab qolay deb,
uni fosiqlik yoʻlidan qaytarmasang, oʻsha odam oʻz gunohi uchun* oʻladi. Biroq uning
oʻlimi uchun Men seni javobgar qilaman. 19 Agarda sen fosiqni ogohlantirsang–u, u esa
fosiqlik yoʻlidan qaytmasa, u oʻz gunohi uchun oʻladi, sen esa oʻz joningni asrab qolgan
boʻlasan. 20 Agar solih kishi yomon yoʻlga kirib, gunohga qoʻl ursa, Men uning oyogʻiga
toʻgʻonoq solaman, u qoqilib yiqiladi*. Bordi–yu, sen oʻsha odamni ogohlantirmasang, u
nobud boʻladi. Men uning qilgan savob ishlarini esga olmayman, u oʻzining gunohi
uchun oʻladi. Uning oʻlimi uchun esa seni javobgar qilaman. 21 Bordi–yu, sen solih kishini
yomon yoʻldan qaytarsang, u senga quloq solgani uchun yashaydi. Sen esa oʻz joningni
asrab qolgan boʻlasan.

Hizqiyol tildan qoladi

22 Egamiz menga Oʻz qudratini ato etib, shunday dedi:

— Qani, tur, vodiyga tush. Men sen bilan oʻsha yerda gaplashaman.

23 Men turib, vodiyga tushdim. Egamizning ulugʻvorligi menga zohir boʻldi. Men u
yerda koʻrgan Egamizning ulugʻvorligi xuddi Kavor daryosi boʻyida koʻrgan
ulugʻvorlikka oʻxshar edi*. Men muk tushdim.

24 Ruh vujudimga kirib, meni oyoqlarimga turgʻizib qoʻydi. Soʻng Egamiz menga
shunday dedi:

— Uyingga kirib, eshiklarni ichidan qulflab ol. 25 Koʻchaga chiqa olmasliging uchun
seni arqonlar bilan bogʻlashadi. 26 Sen bu isyonkor xalqqa tanbeh bera olmasliging
uchun, Men seni gung qilib, tilingni tanglayingga yopishtirib qoʻyaman. 27 Ammo ularga
aytadigan gapim boʻlganda, seni yana tilga kiritaman*. Ularga: “Egamiz Rabbiy shunday
demoqda”, deb gapirasan. Senga quloq soladiganlar quloq solsin, quloq solishni
xohlamaganlar esa solmasin. Axir, ular isyonkor xalq–ku!

4–BOB

Quddus qamalining ramzi

1 Egamiz shunday dedi: “Ey inson, bir gʻisht olib oldingga qoʻy, uning ustiga Quddus
rasmini chiz. 2 Rasmdagi shaharni qamal qilib, atrofiga qamal inshootlarini bildiruvchi
uyumlarni hosil qil, shahar devoriga qiyalatib tuproq uy*, dushman qarorgohlarini

o‘rnat, shaharning gir aylanasiga devorteshar qurollarni joylashtir. 3 Keyin tovani ol. Tovani temir devor kabi, o‘zing bilan rasmdagi shaharning orasiga o‘rnat. So‘ng shaharga yuzlan, sen shaharni qamal qilgan bo‘lasan. Isroil xalqi uchun bu bir alomat bo‘ladi.

4 So‘ng chap tomoningga yonboshlab, ustingga Isroil* xalqining gunohlarini yukla. Sen chap tomoningda yotgan paytingda ularning gunohi uchun jazo tortgan bo‘lasan. 5 Ular gunoh qilgan yillarning soniga ko‘ra, Men sen uchun kunlarni ajratdim. Sen 390 kun davomida Isroil xalqining gunohi uchun jazo tortasan.

6 Belgilangan vaqt tugagach, o‘ng tomoningga yonboshlab yotgin. Bu safar sen 40 kun davomida Yahudo xalqining gunohi uchun jazo tortasan. Bir kun bir yil hisoblanadi. 7 Quddus ramzi bo‘lgan g‘ishtga yuzlan, qo‘lingni panshaxa qilib, qamal qilingan shaharga qarshi bashorat qil. 8 Mana, qamalingning muddati tugamaguncha bir tomondan boshqa tomonga o‘girilmasliging uchun Men seni arqonlar bilan bog‘lab tashlayman.

9 Endi borib o‘zing uchun bug‘doy, arpa, loviya, yasmiq doni, tariq va qizil bug‘doyni olib, bir xumchaga sol. Sen ulardan o‘zingga non tayyorlaysan*. 390 kun chap tomoningga yonboshlab yotib, o‘sha nondan yeysan. 10 Bir kunlik yeydigan ozuqangning miqdori 50 misqolni* tashkil qilishi kerak. Har kuni belgilangan vaqtdagina uni yeyishing shart. 11 Suvni ham belgilangan vaqtda va belgilangan miqdorda ichasan. Kuniga bir kosa* suv ichasan. 12 O‘tin o‘rniga odam tezagini ishlatasan, odamlarning ko‘zi oldida non yopib yeysan.”

13 Egamiz shunday dedi:

— Men Isroil xalqini begona xalqlar orasiga surgun qilganimda, ular ham xuddi shunday harom nonni yeydigan bo‘ladilar*.

14 — Yo Egam Rabbiy! — deya yolvordim, — men hech qachon o‘zimni bulg‘agan emasman. Harom o‘lgan yoki hayvonlar g‘ajigan jonivorning go‘shtini yoshligimdan yegan emasman. Hech qanday harom go‘shtni og‘zimga olgan emasman!

15 U menga shunday deb javob berdi:

— Xo‘p, mayli, odam tezagining o‘rniga mol tezagini ishlata qol. Tezak yoqib, non yopib yeysan.

16 So‘ng gapida davom etdi:

— Men Quddus aholisini nonga zor qilib qo‘yaman. Ular qo‘rquv ichra nonni o‘lchab yeydilar, umidsizlanib suvni taqsimlab ichadilar. 17 Suv va non tanqisligidan odamlar bir–birlariga vahima ichra qaraydilar. Tortgan jazosidan adoyi tamom bo‘ladilar.

5–BOB

Hizqiyol sochini oldiradi

1 Egamiz shunday dedi: “Ey inson, o‘tkir bir qilich ol. Ustara o‘rniga o‘shani ishlatib, soching bilan soqolingni qirib tashla*. So‘ng sochingni tarozida o‘lchab, teng uch qismga bo‘l. 2 Shaharning qamal kunlari tugaganda, sochingning bir qismini g‘ishtga chizilgan shahar o‘rtasida yondir. Ikkinchi qismini shahar atrofiga sochib tashlab, qilich bilan maydala. Uchinchi qismini esa shamolda uchirtirib yuborgin. Men qilichimni yalang‘ochlab, shahar aholisini ta’qib qilaman. 3 Sochingning ozginasini olib, choponing etagiga qistirib qo‘y. 4 O‘sha sochingning bir qismini olovga tashlab, yondirib yubor.

Undan chiqqan olov avj olib, butun Isroil xalqiga yoyiladi.”
5 Egamiz Rabbiy shunday deb aytmoqda: “Mana, Quddusga bir qarang. Men uni
xalqlarning o‘rtasiga joylashtirdim, boshqa yurtlar uni o‘rab turibdi. 6 Ammo u qonun–
qoidalarimga qarshi chiqdi, atrofdagi xalqlardan ko‘ra, ko‘proq qabihlik qildi. U qonun–
qoidalarimni rad etdi, farmonlarimga bo‘ysunmadi.”
7 Shuning uchun Egamiz Rabbiy Quddusga aytmoqda: “Sizlar badkirdorlikda
atrofingizdagi xalqlardan ham o‘tib tushdingiz. Farmonlarimga bo‘ysunmadingiz,
qonun–qoidalarimga rioya qilmadingiz. Axloqsizlikda boshqa xalqlardan battar
bo‘ldingiz. 8 Ey Quddus ahli, Men O‘zim sizlarga qarshi chiqaman, — deb aytmoqda
Egamiz Rabbiy. — Xalqlarning ko‘zi oldida sizlarni jazolayman. 9 Qilgan jirkanch
ishlaringiz tufayli Men boshingizga dahshatli bir ko‘rgilik keltiraman. Men bunaqasini
hech qachon qilmaganman va bundan keyin ham qilmayman. 10 Quddusda ota–onalar
o‘z farzandlarining etini, farzandlar esa o‘z ota–onalarining etini yeydilar. Men sizlarni
jazolayman, omon qolganlaringizni dunyoning to‘rt tomoniga tarqatib yuboraman.
11 Men, Egangiz Rabbiy, barhayot Xudo bo‘lganim haqi ont ichib aytamanki, sizlarni yo‘q
qilaman. Sizlar muqaddas maskanimni makruh butlaru jirkanch odatlaringiz bilan
harom qildingiz. Shuning uchun sizlarga achinmayman, rahm qilmayman.
12 Xalqingizning uchdan bir qismi o‘latu qahatchilikdan nobud bo‘ladi. Ikkinchi qismi
jangda, shahar tashqarisida qirilib ketadi. Qolgan qismini esa Men to‘rt tomonga
tarqatib yuboraman, qilichimni yalang‘ochlab ta’qib qilaman.
13 Shunda g‘azabimdan tushaman, qahrimni sizlarga sochib bo‘lganimdan keyingina
taskin topaman. Qahrimni sizlarga sochib bo‘lganimdan keyin, Men, Egangiz, rashk
ustida gapirganimni sizlar bilib olasiz. 14 Men sizlarni xonavayron qilaman. Yon–atrofda
yashovchi xalqlar hamda o‘tgan–ketgan odamlar sizlarni mazax qiladilar. 15 Men sizlarni
qahru g‘azab bilan hukm qilganimda, jahl ustida qattiq jazolaganimda, atrofdagi xalqlar
dahshatga tushadilar. Ular bundan saboq oladilar, sizlarni esa mazax qilib, ustingizdan
kuladilar. Bularni Men, Egangiz, aytdim. 16 Men ustingizga qahatchilikning halokatli
o‘qlarini yog‘diraman, sizlarni yo‘q qilaman. Shahardagi ocharchilikni avjiga
chiqaraman, sizlarni bir burda nonga zor qilaman. 17 Men sizlarni qahatchilikka giriftor
qilaman, ustingizga yovvoyi hayvonlarni yuboraman. Ular sizlarni farzandlaringizdan
judo qiladi. Yurtingizda o‘lat va qotillik hukm suradi, Men sizlarga qarshi dushman
qilichini yalang‘ochlayman. Bularni Men, Egangiz, aytdim.”

6–BOB

Egamiz butparastlikni hukm qiladi

1 Egamiz menga O‘z so‘zini ayon qildi: 2 “Ey inson, Isroil tog‘lariga yuzlan. Ularga
qarshi shunday bashorat qil: 3 «Ey Isroil tog‘lari, Egamiz Rabbiyning so‘zlarini
eshitinglar! Egamiz Rabbiy tog‘laru qirlarga, jarliklaru vodiylarga shunday deb
aytmoqda: Men O‘zim sizlarga qarshi qilich yuboraman, butlarga atalgan barcha
sajdagohlaringizni* vayron qilaman. 4 Qurbongohlaringiz buzib tashlanadi, tutatqi
qurbongohlaringiz parcha–parcha qilinadi. Men odamlaringizni butlaringiz oldida qirib
yuboraman. 5 Isroil xalqining jasadlarini butlaringiz oldiga tashlayman, suyaklarini
qurbongohlaringiz atrofiga sochaman. 6 Hamma shaharlaringizni yakson qilaman,
sajdagohlaringizni vayron etaman. Shunda qurbongohlaringiz buziladi, butlaringiz

parcha–parcha qilinadi, tutatqi qurbongohlaringiz qo‘porib tashlanadi, qo‘llaringiz yaratgan hamma narsa supurib tashlanadi. 7 Butun yurt jasadlarga to‘ladi. O‘shanda Egangiz Men ekanligimni bilib olasizlar.

8 Men ba’zi bir odamlarning jonini qirg‘indan saqlab qolaman. Biroq ularni boshqa yurtlarga, begona xalqlar orasiga quvib yuboraman. 9 Ular begona xalqlar orasiga surgun qilinganda Meni eslaydilar. Meni rad etgan vafosiz qalblariyu butlar ketidan qaragan hirsli ko‘zlari dilimga qanchalik ozor yetkazganini tushunib oladilar. Ular qilgan qabihliklari va jirkanch ishlari uchun o‘zlaridan o‘zlari hazar qilib, nafratlanadilar. 10 O‘shanda Egasi Men ekanligimni bilib oladilar. Boshlariga keladigan falokat haqida Men ularni jiddiy ogohlantirganimni bilib oladilar.»”

11 Egamiz Rabbiy menga dedi: “Qani bo‘l, ko‘ksingga ur, yerni tep. Shunday deb xitob qil: «Qabihlikka qo‘l urgan Isroil xalqining holiga voy!» Axir, ular qilichdan, ocharchiligu o‘latdan nobud bo‘ladilar! 12 Uzoqlarda bo‘lganlar o‘latdan qirilib ketadi. Yaqinda bo‘lganlar qilichdan o‘tkaziladi. Omon qolganlar ocharchilikdan nobud bo‘ladi. Shu yo‘l bilan Men ularning ustilariga qahrimni sochaman. 13 Ularning jasadlari butlari orasida, qurbongohlari atrofida, har bir baland tepalikda, barcha tog‘ cho‘qqilarida, har bir yashil daraxtu sersoya eman ostida — xalqim butlarga atab xushbo‘y tutatqilar tutatgan har bir joyda yotadi. O‘shanda omon qolganlari Egasi Men ekanligimni bilib oladilar. 14 Men ularga qarshi qo‘limni ko‘taraman. Ularning butun yurtini, sahrodan tortib, to Rivlo* shahrigacha vayron qilib, tashlandiq yerga aylantiraman. O‘shanda ular Egasi Men ekanligimni bilib oladilar.”

7–BOB

Isroil xalqi gunohlari uchun jazo tortadi

1 Egamiz menga O‘z so‘zini ayon qildi: 2 “Ey inson, Isroil yurtiga ayt: «Egamiz Rabbiy shunday demoqda: kuni bitdi! Butun yurtning kuni yetdi! 3 Ey Isroil, sening kuning bitdi, Men qahrimni ustingga sochaman. Tutgan yo‘ling uchun seni hukm qilaman, jirkanch odatlaring uchun jazolayman. 4 Senga achinmayman, rahm ham qilmayman. Tutgan yo‘ling uchun, jirkanch odatlaring uchun adabingni beraman. O‘shanda Egang Men ekanligimni bilib olasan.

5 Ey Isroil, Egamiz Rabbiy shunday deb aytmoqda: mana, kulfat kelmoqda! Dahshatli kulfat! 6 Kuningiz bitdi! Evoh, kuningiz bitdi! Mana, balo boshingizga keldi! 7 Ey yurt ahli, halokatingiz keldi! Tog‘larda xursandchilik emas, sarosima hukm suradigan kun keldi. 8 Ko‘p o‘tmay sizlarni g‘azabimga duchor qilaman, jahlimdan tushmagunimcha qahrimni ustingizga sochaman. Tutgan yo‘lingiz uchun sizlarni hukm qilaman, jirkanch odatlaringiz uchun jazolayman. 9 Sizga achinmayman, rahm qilmayman. Tutgan yo‘lingiz uchun, jirkanch odatlaringiz uchun adabingizni beraman. O‘shanda sizni jazolagan Egangiz Men ekanligimni bilib olasiz.»

10 Ey inson, ana, kulfat kuni yetib keldi! Halokat yaqinlashib qoldi! Zo‘ravonlik gulladi, mag‘rurlik kurtakladi. 11 Zo‘ravonlik fosiqlikni jazolaydigan xivichga aylandi. Bu odamlarning birontasi omon qolmaydi. To‘kin–sochinligi, boyligi, dabdabasi ado bo‘ladi.

12 O‘sha vaqt keldi! O‘sha kun yaqinlashdi! Xaridor xarid qilgan narsasidan quvonmasin, sotuvchi ko‘rgan zararidan g‘am chekmasin. Mening g‘azabim butun olomon ustiga birday yog‘iladi. 13 Sotuvchi bilan xaridor tirik qolgan taqdirda ham,

sotuvchi sotgan yerini qaytarib ololmaydi. Butun olomonga tegishli bu bashoratni qaytarib bo‘lmaydi. Gunoh qilganlari uchun ularning birortasi o‘z hayotini saqlab qololmaydi. 14 Burg‘ular chalindi, hammasi tayyor bo‘ldi. Ammo jangga kirishga hech kim jur’at qilmadi. Axir, Mening g‘azabim butun olomon ustiga yog‘iladi.

15 Ko‘chada jang bo‘lmoqda. Ichkarida ocharchiligu o‘lat hukm surmoqda. Daladagilar jangda halok bo‘ladilar, shahardagilar ocharchiligu o‘latdan o‘ladilar. 16 Omon qolganlar dashtdagi kabutarlarday tog‘larga qochadi. Ular gunoh qilganlari uchun ingraydi. 17 Odamlarning qo‘llarida mador qolmaydi, ishtonlari ho‘l bo‘ladi. 18 Ular qayg‘udan qanorga o‘ranishadi, dahshat ularning yopinchig‘i bo‘ladi. Ular sochlarini qirdirishadi*, yuzlari shuvut bo‘ladi. 19 Kumushlarini ko‘chaga uloqtirishadi, oltini axlat kabi bo‘ladi. Mening g‘azab kunimda kumushu oltini ularga najot bera olmaydi. Ularning nafsini qondirmaydi, och qorinlarini to‘ydirmaydi. Ha, oltinu kumushi Isroil xalqining boshiga halokat keltiradi*. 20 Ular ko‘z–ko‘z qilib yurgan chiroyli oltin bezaklaridan makruh xudolarni, jirkanch butlarni yasadilar. Shu sababdan Men boyliklarini ular uchun axlat kabi qilaman.

21 Men o‘sha boyliklarni kelgindilarga o‘lja qilib beraman, dunyoning fosiqlariga talataman. Ular Isroil xalqining bor bisotini harom qiladilar. 22 Men bu xalqdan yuzimni o‘giraman. Shunda kelgindilar aziz uyimni* bulg‘aydilar. Ha, zo‘ravonlar bostirib kelib, uni bulg‘aydilar.

23 Bu xalq uchun zanjirlar tayyorlang! Zero, yurtda qotillik avjiga chiqqan. Quddus shahri zo‘ravonlikka to‘lgan. 24 Men bu yurtga eng vahshiy xalqlarni boshlab kelaman. Ular yurt ahlining uylariga egalik qilishadi. Men kuchlilarning mag‘rurligiga chek qo‘yaman. Ularning sajdagohlari harom qilinadi. 25 Dahshatu alam Isroil xalqini qamrab oladi. Ular tinchlikka intilishadi, ammo tinchlik bo‘lmaydi. 26 Kulfat ketidan kulfat keladi, mish–mish ketidan mish–mish tarqaladi. Odamlar bashorat istab, payg‘ambar oldiga behuda borishadi. Ruhoniylar ta’limot berishga, oqsoqollar maslahat berishga ojiz bo‘ladilar. 27 Shunda shoh qayg‘uga botadi, shahzodalar tushkunlikka tushadi. Qo‘rqqanidan yurt ahlining qo‘li titraydi. Men ularni qilgan qilmishlariga yarasha jazolayman. Ular boshqalarni qanday hukm qilgan bo‘lsalar, Men ham ularni xuddi shunday hukm qilaman. O‘shanda Isroil xalqi Egasi Men ekanligimni bilib oladi.”

8–BOB

Ma’baddagi butparastlik

1 Surgun bo‘lgan paytimizning oltinchi yili oltinchi oyining* beshinchi kunida Yahudo oqsoqollari meni ko‘rgani uyimga kelishdi. Men ular bilan o‘tirganimda, Egam Rabbiyning qudrati meni qamrab oldi. 2 Qarasam, inson qiyofasidagi bir kishi turibdi. O‘sha kimsaning belidan pastki qismi olovday chaqnar edi. Yuqori qismi esa sayqallangan misday nur taratib turar edi. 3 U qo‘lga o‘xshash bir uzvini uzatib, meni sochimdan tutdi. So‘ng Ruh meni zamin uzra ko‘tardi–da, Xudoning mana shu vahiysida Quddus shahriga olib ketdi. U meni Ma’badning ichki hovlisidagi shimoliy darvozaning* oldida turgan katta bir but oldiga olib bordi. Bu but Xudoning rashkini qo‘zg‘atardi. 4 O‘sha yerda Isroil Xudosining ulug‘vorligi bor edi. Men bunday vahiyni vodiyda ham ko‘rgan edim*.

5 Xudo menga shunday dedi: “Ey inson, shimol tomonga nazar tashla.” Men shimol

tomonga nazar tashladim. Xudoning rashkini qo‘zg‘atadigan o‘sha but qurbongoh yonidagi darvozaning kiraverishida turardi. 6 Shunda Xudo menga dedi: “Ey inson, xalqimning qilmishini ko‘rdingmi? Ular bu yerda jirkanch ishlarni qilib, Meni muqaddas maskanimdan haydab yubormoqchilar. Qani yur, Men senga bundan battarini ham ko‘rsataman.”

7 U meni Ma’badning tashqi hovlisi kiraverishiga olib bordi. Qarasam, devorda bir teshik bor ekan. 8 U menga dedi: “Ey inson, qani bo‘l, devordagi teshikni kattalashtir.” Men devordagi teshikni kattalashtirdim, shunda bir eshikka duch keldim. 9 Xudo menga dedi: “Ichkariga kir. Bu yerda qilinayotgan o‘taketgan jirkanch ishlarni o‘z ko‘zing bilan ko‘rib qo‘y.” 10 Men ichkariga kirdim. Devorlarning hamma yog‘iga sudralib yuruvchi jonivorlarning va harom hayvonlarning* rasmlari hamda Isroil xalqi sig‘inadigan barcha butlarning tasvirlari solingan edi. 11 Tasvirlarning oldida Isroil xalqining yetmishta oqsoqoli turgan edi. Shofon o‘g‘li Yazaniyo ham o‘shalarning orasida edi. Har birining qo‘lida bittadan olovkurak bor edi. Olovkuraklardan yonayotgan tutatqilarning xushbo‘y tutuni ko‘tarilardi. 12 Xudo dedi: “Ey inson, Isroil oqsoqollarining butlarga to‘la qorong‘i xonada nima qilayotganini ko‘rdingmi? Ular shunday deydilar: «Egamiz bizni ko‘rmayapti, U yurtimizni tark etgan.»” 13 So‘ng Xudo yana dedi: “Qarab tur, Men senga bundan ham battarrog‘ini ko‘rsataman.”

14 Keyin Egamiz meni uyining shimoliy darvozasi yoniga olib bordi. U yerda xotinlar o‘tirib, xudo Tammuz uchun qayg‘urib yig‘layotgan edilar*. 15 Shunda Xudo dedi: “Ey inson, buni ko‘rdingmi?! Men senga bundan ham battarrog‘ini ko‘rsataman.”

16 Egamiz meni uyining ichki hovlisiga olib kirdi. Uyning kiraverishida, ayvon va qurbongoh orasida yigirma besh nafar kishi turar edi. Ular Ma’badga orqasini o‘girib, sharqdan chiqayotgan quyoshga sajda qilayotgan edilar. 17 Egamiz menga shunday dedi: “Ana ko‘rdingmi, inson? Yahudo xalqining mana shu yerda qilayotgan jirkanch ishlari yetmasmidi?! Ular butun yurtni zo‘ravonlikka to‘ldirmoqdalar, qayta–qayta qahrimni keltirmoqdalar. Meni haqorat qilayotganlarini* bir ko‘rib qo‘y! 18 Shuning uchun Men ularning ustiga g‘azabimni sochaman. Ularga achinmayman, rahm qilmayman. Ovozlari boricha Menga xitob qilishsa ham, ularga quloq solmayman.”

9–BOB

Quddusning jazosi

1 Men Xudoning jarangdor ovozini eshitdim. U baland ovozda dedi:

— Ey shaharni jazolash uchun tayinlanganlar, qurollaringizni olinglar. Bu yerga kelinglar!

2 Shu onda shimoldagi Yuqori darvoza* tomondan olti kishi keldi. Har birining qo‘lida halokatli quroli bor edi. Ularning orasida zig‘ir tolasidan to‘qilgan libos kiygan, beliga esa kotiblik asboblarini taqib olgan bir kimsa ham bor edi. Kelgan odamlarning hammasi ichkariga kirib, bronza qurbongohning yoniga borib turishdi.

3 Karublar* ustidagi Isroil Xudosining ulug‘vorligi o‘z joyidan ko‘tarilib, uyning ostonasiga bordi. So‘ng Egamiz zig‘ir libos kiygan kishini chaqirib, 4 dedi:

— Borib shaharning hamma joyini aylanib chiq. Shaharda qilinayotgan jirkanch ishlardan siqilib, zorlangan kishilarning peshanasiga belgi qo‘y.

5 Qurollangan olti kishiga esa Egamizning shunday deganini eshitdim:

— Unga ergashinglar. Butun shaharni aylanib chiqinglar. Odamlarni o‘ldiringlar, ularga achinmanglar, rahm qilmanglar. 6 Qariyalarni, yigitu qizlarni, ayolu bolalarni — hammasini o‘ldiringlar, ammo peshanasiga belgi qo‘yilgan bironta odamga ham zarar yetkazmanglar. Buyrug‘imni bajarishni shu yerdan, muqaddas maskanimdan boshlanglar.

Shunday qilib, ular qirg‘inni Egamizning uyi oldida bo‘lgan oqsoqollardan boshladilar. 7 Egamiz dedi:

— Uyimni harom qilinglar! Hovlini jasadlarga to‘ldiringlar. Qani boshlanglar!

Qurollangan odamlar shaharga borib, u yerdagilarni qirib tashladilar. 8 Ular buyruqni bajargani ketganlarida, men yolg‘iz o‘zim qoldim. Men yerga muk tushib, Xudoga iltijo qildim:

— Yo Egam Rabbiy! Sen g‘azabingni Quddusga sochib, Isroilning qolgan–qutgan xalqini ham yo‘q qilib yubormoqchimisan?

9 U menga shunday javob berdi:

— Isroil va Yahudo xalqlari og‘ir gunohga qo‘l urishdi. Ular butun yurtni qonga belashdi, Quddus shahrini adolatsizlikka to‘ldirishdi. Ular: “Egamiz yurtimizni tark etgan, U bizni ko‘rmayapti”, deb aytishyapti. 10 Men esa ularga achinmayman, rahm qilmayman. Qilgan barcha qilmishlariga yarasha jazosini beraman.

11 Shu orada zig‘ir libosli, beliga kotib asboblarini taqib olgan kishi qaytib kelib Egamizga:

— Amrlaringizni bajo ayladim, — dedi.

10–BOB

Xudoning ulug‘vorligi Ma’badni tark etadi

1 Qarasam, karublar tepasidagi gumbaz* uzra zangori yoqutga o‘xshash bir narsa paydo bo‘ldi. O‘sha narsa taxt shaklida edi. 2 Xudo zig‘ir libos kiygan kishiga shunday dedi: “Qani bo‘l, karublar ostidagi g‘ildiraklar orasiga kirib, u yerdan bir hovuch yonayotgan ko‘mirdan olib chiq. Ko‘mirni shaharning hamma yog‘iga sochib tashla.”

O‘sha kishi g‘ildiraklar orasiga kirib ketdi. Men esa uni kuzatib turdim. 3 U kirgan paytda karublar Egamiz uyining janub tomonida turgan edilar, ichki hovlini esa bulut qoplagan edi. 4 So‘ng Egamizning ulug‘vorligi karublar uzra ko‘tarilib, uyning ostonasiga borib to‘xtadi. Shu onda uy bulutga to‘ldi, butun hovli Egamizning ulug‘vorligidan chaqnab yorishib ketdi. 5 Karublar qanotlarini qimirlatganlarida shunday shovqin ko‘tarilar ediki, uni hatto tashqi hovlidan turib eshitsa ham bo‘lar edi. Bu shovqin Qodir Xudoning ovoziga o‘xshab ketar edi.

6 Egamiz zig‘ir libos kiygan kishiga: “Karublarning o‘rtasiga kir, g‘ildiraklar orasidagi yonayotgan ko‘mirdan olib chiq”, deb amr berganda, o‘sha kishi bitta g‘ildirakning oldiga borib turdi. 7 Shunda karublardan biri qo‘lini uzatib, yonayotgan ko‘mirdan ozrog‘ini oldi–da, zig‘ir libos kiygan kishining qo‘liga tutqizdi. U kishi yonayotgan ko‘mirni olib ketdi. 8 Har bir karubning qanoti ostida inson qo‘liga o‘xshagan qo‘li bor edi.

9 Qarasam, karublar yonida to‘rtta g‘ildirak turibdi. Har bir karubning yonida bittadan g‘ildirak bor edi. G‘ildiraklar qimmatbaho toshday tovlanardi. 10 To‘rtala g‘ildirakning ko‘rinishiga kelsak, ular bir–biriga o‘xshar edi. Har bir g‘ildirakning ichida

koʻndalangiga solingan yana bittadan gʻildirak bor edi. 11 Ular harakatga kelganda toʻrt
tomonga yura olar edi, yurganda burilmasdi. Karubning yuzi qayerga yoʻnaltirilgan
boʻlsa, hammasi burilmay oʻsha tomonga yurishardi. 12 Karublarning butun badanlari,
orqalari, qoʻllari, qanotlari hatto toʻrtala gʻildiragi ham koʻz bilan qoplangan edi.
13 Gʻildiraklarning nomi “Aylanadigan gʻildiraklar” ekanligini men eshitib qoldim. 14 Har
bir karubning toʻrttadan yuzi bor edi: birinchi yuz — karubning yuzi, ikkinchi yuz —
odamning yuzi, uchinchi yuz — sherning yuzi va nihoyat toʻrtinchi yuz burgutning yuzi
edi.

15 Karublar zamin uzra koʻtarildilar. Men Kavor daryosi boʻyida koʻrgan jonli
mavjudotlar* mana shu karublar ekan. 16 Karublar yurganlarida, gʻildiraklar ham
yonlarida yurardi. Qanot yozib koʻtarilganlarida, gʻildiraklar ham ulardan ayrilmasdi.
17 Xullas, karublar toʻxtaganda, ular ham toʻxtar edi, koʻtarilganda ular ham birga
koʻtarilar edi, chunki jonli mavjudotlarning ruhi gʻildiraklarda edi.

18 Egamizning ulugʻvorligi uy ostonasidan chiqib, karublar uzra toʻxtadi. 19 Men buni
tomosha qilib turganimda, karublar qanotlarini yozdilar, zamin uzra koʻtarilib,
gʻildiraklari bilan birga uydan chiqib ketdilar. Karublar Egamiz uyining sharqiy
darvozasi yonida toʻxtab qoldilar. Isroil Xudosining ulugʻvorligi ularning ustida edi.

20 Bu jonli mavjudotlarni men Kavor daryosi boʻyida koʻrgan edim. Oʻshanda ham
ular Isroil Xudosining oyogʻi ostida edilar. Bu mavjudotlar karublar ekanligini men endi
tushunib olgan edim, 21 chunki har bir karubning toʻrtta yuzi, toʻrtta qanoti hamda
qanotlari ostida odam qoʻliga oʻxshagan qoʻllari bor edi. 22 Ularning yuz tuzilishi men
Kavor daryosi boʻyida koʻrgan mavjudotlarniki bilan bir xil edi. Har bir mavjudot old
tomonga qarab yurar edi.

11–BOB

Isroilning fosiq yoʻlboshchilari hukm qilinadi

1 Ruh meni koʻtarib, Egamiz uyining sharqiy darvozasiga olib bordi. Darvoza yonida
men yigirma besh nafar kishini koʻrdim. Ularning orasida xalq rahnamolaridan Azzur
oʻgʻli Yazaniyo va Binayo oʻgʻli Pilatiyo bor edi. 2 Egamiz menga shunday dedi: “Ey inson,
mana bu odamlarning niyati yomon. Ular shahardagilarga boʻlmagʻur maslahatlar berib
yurishibdi. 3 Oʻsha buzuq odamlar shunday deydilar: «Hozir imoratlar solishning hojati
yoʻq. Bu shahar qozon kabidir, biz esa qozonda saqlangan goʻshtdaymiz.» 4 Shunday
ekan, ey inson, ularga qarshi bashorat qil!”

5 Soʻng Egamizning Ruhi butun vujudimni qamrab oldi. U Isroil xalqiga quyidagilarni
aytishimni buyurdi: “Egamiz shunday demoqda: ey Isroil xalqi, sizlar oʻsha gapni
aytdingiz. Men esa hamma oʻy–xayollaringizni bilaman. 6 Sizlar shahardagi koʻp
odamlarni oʻldirdingiz, koʻchalarni jasadlarga toʻldirdingiz. 7 Shuning uchun Men,
Egangiz Rabbiy, aytamanki, bu shahar haqiqatan ham qozon kabidir. Ammo goʻsht sizlar
emas, balki siz oʻldirgan odamlarning jasadlaridir. Men sizlarni shahardan chiqarib
yuboraman. 8 Sizlar qilichdan qoʻrqqan edingizlar, ammo ustingizga qilich yuboraman,
— deb aytmoqda Egamiz Rabbiy. 9 — Sizlarni shahardan haydab chiqarib,
ajnabiylarning* qoʻliga topshiraman. Sizlarni shu yoʻsin jazolayman. 10 Sizlar qilichdan
nobud boʻlasizlar. Men sizlarni Isroil chegaralarida jazolayman. Oʻshanda Egangiz Men
ekanligimni bilib olasizlar. 11 Bu shahar sizlar uchun qozonday boʻlmaydi, sizlar ham

qozon ichidagi go‘shtday bo‘lmaysizlar. Men sizlarni Isroil chegaralarida jazolayman.
12 O‘shanda Egangiz Men ekanligimni bilib olasizlar. Zero, sizlar shu paytgacha qonun–
qoidalarimni buzib, yon–atrofingizda yashovchi xalqlarning odatlariga taqlid qilib
keldingizlar.”
13 Men, Hizqiyol, bashorat qilayotganimda, birdaniga Binayo o‘g‘li Pilatiyo jon berdi.
Men yerga yuz tuban yiqilib: “Yo Egam Rabbiy! Sen Isroilda qolgan hamma odamlarni
nobud qilmoqchimisan?” deya ovozim boricha hayqirib yubordim.

Xudoning va’dasi

14 Egamiz menga O‘z so‘zini ayon qildi: 15 “Ey inson, surgun bo‘lgan sening oilang,
urug‘–aymoqlaring va butun Isroil xalqi haqida Quddusdagilar shunday aytishmoqda:
«Ular uzoqda, Egamizga sajda qila olmaydilar. Shuning uchun bu yurt bizga mulk qilib
berildi.» 16 Ammo sen surgunda bo‘lgan Isroil xalqiga shunday xabar yetkaz: «Egamiz
Rabbiy aytmoqda: Men sizlarni olisdagi xalqlar orasiga jo‘natdim. Boshqa yurtlarga
tarqatib yubordim. Biroq begona yurtdagi musofirlik davringizda, O‘zim sizlarga
sajdagoh bo‘laman.»
17 Yana ayt: «Egamiz Rabbiy shunday demoqda: Men sizlarni xalqlar orasidan yig‘ib
olaman. Ha, sizlar begona yurtlarga tarqalib ketdingiz, ammo Men sizlarni u yerlardan
olib chiqaman. Isroil yurtini sizlarga qaytarib beraman.»
18 Ey inson, Isroil xalqi o‘z yurtiga qaytib kelganda, u yerdagi makruh xudolarni,
jirkanch butlarni ildizi bilan yo‘q qiladi. 19 Men ularga yaxlit bir yurak beraman,
qalblarini yangi ruhga to‘ldiraman. Bag‘ridagi tosh yurakni olib tashlab, o‘rniga
yumshoq yurak solaman. 20 Shunda ular farmonlarimni bajaradigan, qonun–
qoidalarimga rioya qiladigan bo‘ladilar. Ular Mening xalqim bo‘ladi, Men esa ularning
Xudosi bo‘laman. 21 Ammo makruh xudolarga, jirkanch butlarga sajda qilishni xush
ko‘radigan odamlarni qilmishlariga yarasha jazolayman.” Egamiz Rabbiyning kalomi
shudir.

Xudoning ulug‘vorligi Quddusni tark etadi

22 Karublar qanotlarini yozib, yonidagi g‘ildiraklari bilan birga osmonga ko‘tarildilar.
Isroil Xudosining ulug‘vorligi karublar ustida edi. 23 Egamizning ulug‘vorligi shaharni
tark etib, shaharning sharq tomonidagi toqqa* borib to‘xtadi. 24 Vahiyda Ruh meni
ko‘tarib, Bobilga* surgun qilinganlarning oldiga qaytarib olib bordi. Vahiy tamom bo‘ldi.
25 Men surgundagi birodarlarimga Egamiz ayon qilgan hamma narsani aytib berdim.

12–BOB

Surgun timsoli

1 Egamiz menga O‘z so‘zini ayon qildi: 2 “Ey inson, sen isyonkor xalq orasida yashab
yuribsan. Ularning ko‘zlari bor, ammo ko‘rmaydilar, quloqlari bor, ammo eshitmaydilar,
chunki ular isyonkor xalqdir.
3 Ey inson, kerakli narsalaringni tugib ol. Xuddi surgunga ketayotganday yo‘lga chiq.
Buni kunduz kuni qil, odamlar seni ko‘rsin. Sen uyingni tashlab, boshqa joyga
ketayotganingni hamma ko‘rsin. Kim bilsin, balki shunda bu isyonkor xalq esini yig‘ib
olar. 4 Xalq seni tomosha qila olishi uchun tuguningni kunduz kuni tashqariga chiqarib
qo‘y. O‘zing esa, kech tushganda, seni tomosha qilayotgan olomon oldida, xuddi

surgunga ketayotganday yo‘lga chiq. 5 Odamlarning ko‘zi oldida uying devorini tesh,
tuguningni teshikdan olib chiq. 6 Kech tushganda, uni yelkangga ortib, yo‘lga tush. Tark
etayotgan yurtingni ko‘ra olmasliging uchun yuzingni yopib ol, chunki xalq tomosha
qiladigan bu namoyish ular uchun bir timsol bo‘ladi.”
7 Men Egamizning aytganini qilib, surgunga ketayotganday, tugunimni kunduz kuni
ko‘chaga chiqarib qo‘ydim. Kech tushganda qo‘lim bilan uyim devorini teshdim.
Qorong‘ida tugunni ko‘chaga chiqarib, yelkamga ortib oldim. Odamlar meni tomosha
qilib turar edilar.
8 Ertasi kuni ertalab Egamiz menga O‘z so‘zini ayon qildi: 9 “Ey inson, bu isyonkor
Isroil xalqi sendan «Nimalar qilyapsan?» deb so‘ragan edi, shunday emasmi? 10-
11 Ularning oldiga borib ayt: «Kecha men sizlarga kelajakda sodir bo‘ladigan voqealarni
namoyish qildim. Qilgan namoyishim Quddusda hukmronlik qilayotgan shahzoda* va u
yerdagi butun Isroil xalqining qismati ramzidir. Egamiz Rabbiy shunday demoqda:
sizlar asirlikka tushib, surgun bo‘lasizlar. 12 Hozir hukmronlik qilayotgan shahzodangiz
ham qorong‘ida yelkasiga tugun ortib, yo‘lga tushadi. U devorda ochilgan teshikdan
chiqadi. Tark etayotgan yurtni ko‘rmasligi uchun yuzini yopib oladi. 13 Men uning ustiga
to‘r tashlayman, u tuzog‘imga tushadi. Men uni Xaldeylar* yurti Bobilga olib boraman,
ammo u Bobilni ko‘ra olmaydi. U o‘sha yerda olamdan o‘tadi. 14 Men shoh saroyining
butun ahlini — vazirlaru soqchilarini to‘rt tomonga tarqatib yuboraman. Qilichimni
yalang‘ochlab, ularni ta’qib qilaman.
15 Ey Isroil xalqi, Men sizlarni xalqlar orasiga tarqatib tashlaganimda, boshqa
yurtlarga quvib yuborganimda, Egangiz Men ekanligimni bilib olasizlar. 16 Ammo Men
ba’zilaringizni asrab qolaman. Ularni jangda saqlayman, ocharchiligu o‘latdan
qutqaraman. Ular boshqa xalqlar orasiga surgun bo‘lganda, qilgan jirkanch odatlarini
e’tirof qiladilar. O‘shanda Egangiz Men ekanligimni bilib olasizlar.»”

Jazo kechiktirilmaydi

17 Egamiz menga O‘z so‘zini ayon qildi: 18 “Ey inson, noningni yeganingda titragin,
suvingni ichganingda qo‘rquv ichra qaltiragin. 19 Yurtdagi odamlarga ayt: «Isroil yurti va
Quddus aholisi to‘g‘risida Egamiz Rabbiy shunday demoqda: bu odamlar yovuz bo‘lib
ketganlari uchun, Men ularning yurtini talon–taroj qildiraman. Ular nonni qo‘rquv ichra
yeydilar, suvni sarosima ichra ichadilar. 20 Aholi yashagan shaharlari vayron bo‘ladi,
butun yurt tashlandiq bo‘lib qoladi. Shunda ular Egasi Men ekanligimni bilib oladilar.»”

Egamizning so‘zlari amalga oshadi

21 Egamiz menga O‘z so‘zini ayon qildi: 22 “Ey inson, Isroil yurtida aytilayotgan,
«kunlar o‘tyapti, bashoratlar esa puchga chiqyapti» degan maqolni eshitgansan. 23 Endi
xalqim oldiga borib ayt: «Egamiz Rabbiy shunday demoqda: Men bu maqolni yo‘q qilib
yuboraman. Isroilda uni aytmaydigan bo‘lishadi.» Yana ularga ayt: «Bashoratlar bajo
bo‘ladigan kunlar yaqinlashib qoldi. 24 Endi Isroil yurtida soxta bashoratlaru yolg‘on
karomatlar aytilmaydi. 25 Ammo Men, Egangiz, sizlarga gapiraman, aytgan so‘zlarim
amalga oshadi, kechikmaydi. Ey isyonkor xalq, sizlar hayot bo‘lgan kunlarda
aytganlarimni bajo keltiraman. Egamiz Rabbiyning kalomi shudir.»”
26 Egamiz menga O‘z so‘zini ayon qildi: 27 “Ey inson! Isroil xalqi sen aytgan
bashoratlar uzoq kelajakka taalluqli, deb o‘ylayapti. 28 Shuning uchun ularga borib ayt:
«Egamiz Rabbiy shunday demoqda: aytgan birorta so‘zim kechikmaydi, hammasi

amalga oshadi! Egamiz Rabbiyning kalomi shudir.»”

13–BOB

Soxta payg‘ambarlarning holi

1 Egamiz menga O‘z so‘zini ayon qildi: 2 “Ey inson, Isroilda o‘zicha bashorat qilib
yurgan payg‘ambarlarga qarshi bashorat qil. Ularga shunday deb ayt: «Egamizning
so‘zlarini eshiting! 3 Egamiz Rabbiy shunday demoqda: ey ahmoq payg‘ambarlar,
holingizga voy! Sizlar hech qanday vahiy ko‘rmagansiz, bashoratlaringizni o‘zingiz
o‘ylab to‘qigansiz.»
4 Isroil xalqiga ayt: «Payg‘ambarlaringiz shahar vayronalari orasida daydib yurgan
chiyabo‘rilarga o‘xshaydi. 5 Mana, ular devorning o‘pirilib tushgan joylarini
qo‘riqlamadilar, devorni tuzatmadilar. Endi Mening g‘azab kunimdagi jangda sizlar
o‘zingizni muhofaza qila olmaysiz. 6 Payg‘ambarlaringizning ko‘rgan vahiylari soxta,
karomatlari yolg‘ondir! Men ularni yubormaganman, ammo ular ‘Egamiz shunday
demoqda’, deb gapiradilar. Yana o‘z gaplari amalga oshishini kutadilar! 7 Ko‘rgan
vahiylari soxta emasmi?! Aytgan karomatlari yolg‘on emasmi?! Men ularga gapirmasam
ham, ‘Egamiz shunday demoqda’, deb aytishadi! 8 Payg‘ambarlaringiz yolg‘on gaplar
aytib yuribdilar, soxta vahiylar ko‘ryaptilar. Shuning uchun ularga qarshiman, — deb
aytmoqda Egamiz Rabbiy. 9 — Bu yolg‘onchi payg‘ambarlarga qo‘l ko‘taraman, ularni
kengashingizdan yo‘q qilaman. Nomlarini Isroil xalqi ro‘yxatidan o‘chirib tashlayman,
ular hech qachon Isroil yurtiga qaytib kelmaydilar. O‘shanda Egangiz Rabbiy Men
ekanligimni bilib olasizlar.»
10 Ey inson, notinch paytlarda, bu payg‘ambarlar «tinchlik», deya xalqimni yo‘ldan
uradilar. Xalqim zaif devor ko‘targanda, payg‘ambarlar uni ohak bilan oqlaydilar.
11 Shuning uchun devorni oqlayotganlarga ayt: «Bu devor qulaydi. Uning ustiga jala
yog‘adi, katta–katta do‘l tushadi, unga qarshi dovul turadi. 12 Devor qulaganda odamlar
sizlarga: ‘Devorni oqlaganingizdan nima foyda chiqdi?!’ deb aytmaydimi? 13 Egamiz
Rabbiy shunday demoqda: Men g‘azab ustida dovul turg‘izaman. Qahr ustida jala
yog‘diraman. Jahl ustida do‘l yuborib, devorni qulataman. 14 Sizlar ohak bilan oqlagan bu
devorni Men yiqitaman. Uni poydevorigacha ochib tashlayman. Qulagan devor sizlarni
bosib qoladi, sizlar hammangiz halok bo‘lasizlar. O‘shanda Egangiz Men ekanligimni
bilib olasizlar.»
15-16 Isroil xalqiga ayt: «Egamiz Rabbiy shunday deb aytmoqda: shu yo‘sinda Men
g‘azabimni devor va devorni oqlagan odamlar ustiga yog‘diraman. Men sizlarga: ‘Devor
ham, uni oqlagan odamlar ham yo‘q bo‘ldi’, deb aytaman. Ha, bu payg‘ambarlar notinch
damlarda Quddus aholisiga bashorat qilib, tinchlik vahiylarini bergan edilar.»

Jodugar ayollarning holi

17 Ey inson, Isroil xalqining o‘zicha bashorat qilib yurgan ayollariga yuzlan. Ularga
qarshi bashorat qilib 18 ayt: «Egamiz Rabbiy shunday demoqda: ey odamlarning jonini
ovlab yurgan ayollar, sizlarning holingizga voy! Sizlar har bir odamning bilagiga tumor
taqasizlar. Yoshu qarining boshiga yopinchiqlar yopasizlar*. Sizlar xalqimning jonlarini
ovlab turib, o‘z jonimizni saqlab qolamiz, deb o‘ylaysizmi?! 19 Sizlar bir hovuch arpa
bilan bir burda non uchun xalqim oldida Meni badnom qildingiz–ku! Yolg‘onni xush
ko‘rgan xalqimga yolg‘on gapirib, aybsiz odamni nobud qildingiz. O‘limga loyiq bo‘lgan

odamning jonini esa asrab qoldingiz.
20 Shuning uchun Egamiz Rabbiy aytmoqda: sizlar tumorlaringiz bilan odamlarning
jonlarini ovlayapsizlar. Men o‘sha tumorlaringizga qarshiman. Men ularni
qo‘llaringizdan yulib olaman, qafasdagi qushni ozod qilganday, xalqimni ozod qilaman.
21 Yopinchiqlaringizni yirtib tashlayman, xalqimni changalingizdan xalos qilaman. Ular
endi sizning qurbonlaringiz bo‘lmaydi. O‘shanda Egangiz Men ekanligimni bilib
olasizlar. 22 Sizlar yolg‘onlaringiz bilan solih odamning dilini ranjitdingiz. Men esa uni
ranjitmoqchi emas edim. Fosiq odam yomon yo‘lidan qaytmasligi, jonini saqlab
qolmasligi uchun sizlar uni qo‘llab turdingiz. 23 Shu sababdan endi sizlar yolg‘on
vahiylar ko‘rmaysizlar, fol ochib yurmaysizlar. Men O‘z xalqimni changalingizdan ozod
qilaman. O‘shanda Egangiz Men ekanligimni bilib olasizlar.»”

14–BOB

Xudo butparastlikni hukm qiladi

1 Isroil oqsoqollaridan ba’zi birlari meni ko‘rgani keldilar. 2 Shu onda Egamiz menga
O‘z so‘zini ayon qildi: 3 “Ey inson, bu odamlar butlarga ko‘ngil qo‘yganlar, gunoh
ularning boshiga halokat keltiradi*. Shunday ekan, Menga maslahat solishlariga qanday
yo‘l qo‘yay?! 4 Sen ularga ayt: «Egamiz Rabbiy shunday demoqda: Isroil xalqidan birorta
odam butlarga ko‘ngil qo‘ysa, bu gunoh uning boshiga halokat keltiradi. Agar bunday
odam maslahat so‘ragani payg‘ambar oldiga kelsa, Men, Egangiz, o‘sha odamning
sanoqsiz butlariga yarasha javobini beraman. 5 O‘sha butlari tufayli butun Isroil xalqi
Mendan uzoqlashib ketdi, ammo Men beradigan javobim bilan ularning sadoqatini
qozonaman.»
6 Isroil xalqiga ayt: «Egamiz Rabbiy shunday demoqda: tavba qilinglar,
butlaringizdan voz kechinglar. Jirkanch odatlaringizdan yuz o‘giringlar. 7 Ey Isroil xalqi,
bilib qo‘yinglar, agar sizlardan birortangiz yoki orangizda yashab yurgan birorta
musofir Mendan yuz o‘girib, butlarga ko‘ngil qo‘ysa, bu gunoh uning boshiga halokat
keltiradi. Bunday odam payg‘ambar oldiga kelib, Menga maslahat solsa, o‘sha odamga
javobni O‘zim beraman. 8 Men bunday odamlarga qarshi chiqaman. Boshqalar ularni
misol qilib, masallar aytadi. Men ularni orangizdan yo‘q qilaman. O‘shanda Egangiz Men
ekanligimni bilib olasizlar.
9 Agar payg‘ambar yanglishib, noto‘g‘ri maslahat bersa, o‘sha payg‘ambarni Men,
Egangiz, yanglishtirgan bo‘laman. Men unga qarshi qo‘limni ko‘taraman, uni orangizdan
daf qilaman. 10 Men payg‘ambarni ham, uning oldiga maslahat so‘rab kelgan odamni
ham birday jazolayman. 11 Shunda sizlar yo‘limdan ozmaydigan bo‘lasiz, gunohlaringiz
bilan o‘zingizni bulg‘amaysiz. Sizlar Mening xalqim bo‘lasiz, Men esa sizlarning
Xudoyingiz bo‘laman. Egamiz Rabbiyning kalomi shudir.»”

Egamiz yurt aholisini jazolashi muqarrar

12 Egamiz menga O‘z so‘zini ayon qildi: 13 “Ey inson, agar biror yurtning aholisi
Menga bo‘lgan sadoqatini unutib, gunohga qo‘l ursa, Men ularga qarshi qo‘limni ko‘tarib,
butun yurtga ocharchilik yuboraman. Odamlarni bir burda nonga zor qilaman. Yurtdagi
odamu hayvonlarni qirib tashlayman. 14 Bunday xalq orasida hattoki Nuh, Doniyor* va
Ayub payg‘ambarlar yashagan taqdirda ham, ular solihligi tufayli faqat o‘z jonlarini
saqlab qolgan bo‘lishardi, — deb aytmoqda Egamiz Rabbiy. 15 — Men o‘sha yurt

aholisini yirtqich hayvonlarga talatmoqchi bo‘ldim, deylik. Yurt huvullab qolib,
hayvonlar tufayli odamlar u yerga oyoq bosmay qo‘ydi ham, deylik. 16 Men, Egangiz
Rabbiy, barhayot Xudo bo‘lganim haqi ont ichib aytamanki, agar o‘sha uchala
payg‘ambar u yerda bo‘lganda edi, ular o‘z bola–chaqasini ham qutqara olmagan
bo‘lardi. Ular faqat o‘z jonlarini saqlab qolgan bo‘lardi. Yurt esa xarobazorga aylanardi.
17 Yoki Men o‘sha yurtga dushman yuborib, u yerdagi bor jonzotni qilichdan o‘tkazishga
qaror qildim, deylik. 18 Men, Egangiz Rabbiy, barhayot Xudo bo‘lganim haqi ont ichib
aytamanki, agar o‘sha uchala payg‘ambar u yerda bo‘lganda edi, ular o‘z bola–chaqasini
ham qutqara olmagan bo‘lardi. Ular faqat o‘z jonlarini saqlab qolgan bo‘lardi, xolos.
19 Yoki Men o‘sha yurtga g‘azabimni yog‘dirib, butun jonzotni o‘lat orqali qirib
tashlamoqchi bo‘ldim, deylik. 20 Men, Egangiz Rabbiy, barhayot Xudo bo‘lganim haqi ont
ichib aytamanki, hattoki Nuh, Doniyor va Ayub u yerda bo‘lganda edi, ular o‘z bola–
chaqasini ham qutqara olmagan bo‘lardi. Ular faqat o‘z jonlarini saqlab qolgan bo‘lardi.”
21 Egamiz Rabbiy shunday demoqda: “Men bundan ham battarini qilaman, Quddus
ustiga to‘rt xil dahshatli kulfat yog‘diraman. Shahardagi odamlar va hayvonlar urush,
ocharchilik, yovvoyi hayvonlar dastidan va o‘latdan nobud bo‘ladilar! 22 Ammo ba’zi
erkagu ayollar omon qoladilar. Ular qochib, sizlarning oldingizga, Bobilga keladilar.
O‘shanda ularning yurish–turishini, qilmishlarini o‘zlaringiz ko‘rib, Men Quddus ustiga
yuborgan hamma kulfatlardan taskin topasizlar. 23 Ha, o‘sha odamlarning yurish–
turishini, qilmishlarini ko‘rganlaringizdan keyin taskin topasizlar. Qilgan hamma
ishlarim bejiz emasligini bilib olasizlar.” Egamiz Rabbiyning kalomi shudir.

15–BOB

Uzum toki haqida matal

1 Egamiz menga O‘z so‘zini ayon qildi: 2 “Ey inson, tok novdasining yog‘ochdan farqi
bormi?! O‘rmon daraxtlaridan uning biron afzalligi bormi?! 3 Undan biron–bir narsa
yasab bo‘ladimi? Hech bo‘lmasa, buyum osish uchun qoziq qilsa bo‘ladimi? 4 Yo‘q, u
faqat o‘tin uchun yaraydi, xolos. Novdaning ikki chekkasi kuyib, o‘rtasi yonib bo‘lgandan
keyin, uni biron narsaga ishlatib bo‘larmidi, axir?! 5 Kuymagan tok novdasi yaroqsiz
bo‘lgandan keyin, kuyib bo‘lgani hech qanday foyda keltirmasligi aniq!
6 Shuning uchun Men, Egangiz Rabbiy, shuni aytib qo‘yay: Quddus aholisi o‘rmon
daraxtlari orasidagi uzum tokiga o‘xshaydi. Ular yaroqsiz bo‘lganlari uchun, Men ularni
olovda kuydirib yuboraman. 7 Men O‘zim ularga qarshi chiqaman. Ular olovdan qochib
qutulsalar ham, baribir, olovdan nobud bo‘ladilar. Men ularga qarshi chiqqanimdan
keyin, Egangiz Men ekanligimni sizlar bilib olasizlar. 8 Xalqim Menga xiyonat qilgani
uchun, Men butun yurtni sahroga aylantiraman.” Egamiz Rabbiyning kalomi shudir.

16–BOB

Quddus go‘zal kelinchak timsolida

1 Egamiz menga O‘z so‘zini ayon qildi: 2 “Ey inson, Quddusning barcha jirkanch
odatlarini yuziga solib, 3 ayt: «Egamiz Rabbiy shunday demoqda: asli sen Kan’on yurtida
tug‘ilgansan, sening otang Amor xalqidan, onang Xet urug‘idan bo‘lgan*. 4 Sen
tug‘ilganingda, hech kim senga qaramagan. Hech kim kindigingni qirqmagan, seni

yuvintirmagan, teringni tuz bilan artib, yo‘rgaklamagan. 5 Bironta odamning senga
rahmi kelmagan, hech kim senga achinmagan, qaramagan. Sen tug‘ilganingda, hamma
sendan hazar qilgan, shuning uchun seni dalaga olib borib tashlashgan.
6 Men o‘sha yerdan o‘tib ketayotib, seni ko‘rib qoldim. Sen o‘z qoningga belanib,
tipirchilab yotgan eding. Shunda Men senga: ‘Sen o‘lmaysan!’ dedim. Senga umr tiladim.
7 Men seni dashtdagi o‘simlik kabi o‘stirdim. Sen ulg‘ayding, bo‘ying cho‘zildi, eng go‘zal
bir gavharga o‘xshab qolding*. Sening ko‘kraklaring to‘lishdi, sochlaring uzun bo‘ldi,
ammo sen qip–yalang‘och eding.
8 Men yana o‘sha yerdan o‘tib ketayotib, seni ko‘rib qoldim. Sen sevgi uchun
yetilganingni ko‘rib, kiyimimning etagi bilan yalang‘och badaningni yopdim. Men senga
qasamyod qildim, sen bilan nikoh ahdini tuzdim. Shunda sen Meniki bo‘lding, — deb
aytmoqda Egamiz Rabbiy. 9 — Seni cho‘miltirib, badaningga yopishib qolgan qon
qoldiqlarini yuvib tashladim. Teringga xushbo‘y moylarni surtdim. 10 Egningga naqsh
solingan ko‘ylak, oyog‘ingga yumshoq teridan tikilgan choriqlar kiydirdim. Boshingga
harir ro‘mol o‘rab, ustingga shoyi to‘n tashladim. 11 Qimmatbaho bezaklar bilan senga
zeb berdim: qo‘llaringga bilaguzuklar, bo‘yningga tilla zanjir, 12 burningga uzuk,
quloqlaringga sirg‘a taqdim, boshingga go‘zal bir toj kiydirdim. 13 Seni oltinu kumush
bilan bezantirdim, ustingga qimmatbaho shoyi, mayin zig‘ir matosidan tikilgan liboslaru
naqsh solingan ko‘ylaklar kiydirdim. Oliy navli undan yopilgan nonlar bilan, zaytun
moyi va asal bilan seni boqdim. Sen nihoyatda go‘zal bo‘lding, haqiqiy malikaga o‘xshab
qolding. 14 Mislsiz go‘zalliging bilan xalqlar orasida dong taratding, chunki Men senga
bergan ulug‘vorligim go‘zalligingni mukammal qilgan edi. Egamiz Rabbiyning kalomi
shudir.

Quddus fohisha timsolida

15 Sen esa go‘zalligingga ishonding. Shuhratingdan foydalanib, fahsh yo‘liga kirding*.
O‘tgan–ketgan erkakka o‘zingni berding, go‘zalligingdan ularni bahramand qilding.
16 Men senga bergan nafis matolar bilan sajdagohlaringni* bezab, u yerda fohishalik
qilding. Qanday sharmandagarchilik! Aslo bunday bo‘lishi kerak emas edi! 17 Bundan
tashqari, Men senga bergan oltin va kumush bezaklardan o‘zingga erkak tasviridagi
haykalchalar yasattirding. Ular bilan zino qilding. 18 Naqsh solingan ko‘ylaklaringni
butlar ustiga kiydirding. Men senga bergan moy bilan xushbo‘y tutatqilarni ularga nazr
qilding. 19 Senga non uchun bergan oliy navli unni, zaytun moyi va asalni butlaringga
xushbo‘y hadyalar sifatida tortiq qilding. Eha, shular sodir bo‘ldi, — deb aytmoqda
Egamiz Rabbiy. 20 — So‘ng Mendan ko‘rgan o‘g‘il–qizlaringni olding, ularni o‘z
butlaringga yem qilib, qurbon qilding. Nahotki fohishalik qilganing yetmagan bo‘lsa?!
21 Bolalarimni so‘yishing, ularni butlaringga qurbonlik qilib, olovda kuydirishing*
shartmidi?! 22 Jirkanch odatlaru fohishalik qilganingda sen biron marta ham o‘z
bolaligingni eslamading, qip–yalang‘och bo‘lganingni, o‘z qoningga belanib tipirchilab
yotganingni esga olmading.
23 Sening holingga voy! — deb aytmoqda Egamiz Rabbiy. — Qilgan qabihliklaring
yetmaganday sen 24 o‘zing uchun so‘rilar qurding, har bir maydonda baland supalar*
o‘rnatding. 25 Har bir ko‘chaning boshida baland supalar qurib, go‘zalligingni xor qilding.
O‘tgan–ketganga putingni ochding, fohishalikka berilib ketding. 26 A’zosi yirik bo‘lgan
qo‘shni Misr bilan yotding. Fahshga berilib, g‘azabimni keltirding. 27 Shunda Men

qo‘limni senga qarshi ko‘tardim. Rizqingni kamaytirib, seni dushmanlaring bo‘lgan Filist ayollarining ixtiyoriga topshirdim. Hattoki o‘shalar ham sening behayoligingni ko‘rib, yoqalarini ushlashgan. 28 Sen to‘ymas hirsingni qoniqtirish uchun Ossuriya* bilan fohishalik qilding. Ammo shunda ham qoniqmading. 29 Savdogarlar yurti bo‘lgan Bobil* bilan ham fahshga berilding, ammo shunda ham qoniqmading.

30 Naqadar buzuqdir sening yuraging! — deb aytmoqda Egamiz Rabbiy. — Sen o‘zingni shaloq xotinday tutding–ku! 31 Sen har bir ko‘chaning boshida so‘rilar qurding, har bir maydonda baland supalar o‘rnatding. Yo‘q, sen fohishaday emas eding, sen to‘lovdan hazar qilarding. 32 Sen buzuq ayolsan! Begona erkaklarni o‘z eringdan afzal ko‘rding. 33 Hamma fohishalarga sovg‘alar beriladi. Lekin sen hamma o‘ynashlaringga sovg‘alar berding. Har yoqdan kelib, sen bilan fohishalik qilishlari uchun ularni sotib olding. 34 Ha, sen boshqa fohishalardan ajralib turasan. Hech kim seni fohishalik qilishga undamagan, hech kim senga to‘lov bermagan. Aksincha, boshqalarga sen to‘lov bergansan. Haqiqatan ham, sen boshqachasan!»

Xudo Quddusni hukm qiladi

35 Ey inson, Quddusga ayt: «Endi esa, ey fohisha, Egamizning so‘zlarini eshit!
36 Egamiz Rabbiy shunday demoqda: sen kiyimlaringni yechib, o‘ynashlaring bilan fohishalik qilding, makruh butlaringga sajda etding. O‘z bolalaringning qonini to‘kib, xudolaringga qurbon qilding. 37 Shuning uchun sendan lazzatlangan hamma o‘ynashlaringni Men har yerdan yig‘ib kelaman. Sen sevganlarni ham, nafratlanganlarni ham senga qarshi yig‘aman. Seni qip–yalang‘och qilib, ularning oldiga chiqarib qo‘yaman. Ular seni tomosha qiladilar. 38 Men seni qotilliging va zinokorliging uchun hukm qilaman. Rashku g‘azabda seni qonga belayman. 39 Seni o‘ynashlaring ixtiyoriga topshiraman. Ular so‘rilaringni buzadilar, supalaringni vayron qiladilar. Ustingdagi kiyimlaringni yulib oladilar, chiroyli taqinchoqlaringni tortib oladilar. Sen qip–yalang‘och qolasan. 40 Ular olomonni yig‘ib, seni toshbo‘ron qiladilar, jasadingni qilich bilan nimtalab tashlaydilar. 41 Uylaringni yondirib yuboradilar, seni bir talay ayollarning ko‘zi oldida jazolaydilar. Shu yo‘sin Men fohishaligingga chek qo‘yaman. Sen o‘ynashlaringga boshqa to‘lov bermaysan. 42-43 Sen bolaligingni eslamaganing uchun, qilmishlaring bilan qahrimni keltirganing uchun, Men qilmishlaringga yarasha jazoingni beraman, — deb aytmoqda Egamiz Rabbiy. — Shunda Men jahldan tushaman, rashkimni bosib olaman. Tinchlanib, boshqa g‘azablanmayman.

Ey Quddus, jirkanch odatlaring yetmasmidi, nimaga behayolik qilding? 44 Odamlar sen haqingda gapirganda ‘qiz onasiga tortar’ degan maqolni ishlatishadi. 45 Sen haqiqatan ham o‘z eri va bolalaridan hazar qilgan onangga o‘xshaysan. Erlari va bolalaridan hazar qilgan opa–singillaringdan qolishmaysan. Sening onang Xet urug‘idan, otang Amor xalqidan edi*. 46 Sening opang Samariya o‘z qizlari bilan shimolda, singling Sado‘m esa o‘z qizlari bilan janubda yashar edilar. 47 Sen nafaqat ularning yo‘llaridan yurgansan, jirkanch odatlariga taqlid qilgansan, balki qisqa vaqt ichida barcha qabihliklaring bilan ulardan o‘zib ham ketgansan. 48 Men, Egang Rabbiy, barhayot Xudo bo‘lganim haqi ont ichib aytamanki, sening singling Sado‘m o‘z qizlari bilan senchalik va sening qizlaringchalik qabihliklar qilmagan. 49 Sado‘mning aybi shudir: u va uning qizlari mag‘rur edilar. Ular to‘q, tinch va osoyishta hayot kechirar edilar, ammo mazlumu nochorlarga yordam bermas edilar. 50 Ha, ular mag‘rur edilar, oldimda

jirkanch ishlar qilgandilar. Men buni koʻrib, ularni yoʻq qilgan edim. 51 Hatto Samariya
ham sen qilgan gunohlarning yarmisini qilmagan. Sen ulardan koʻproq qabihliklar
qilgansan. Qilgan qabihliklaring oldida opang bilan singling solih boʻlib koʻrinadi.
52 Mana endi sharmandaligingga toqat qilishga majbursan. Sen opa–singillaringning
jazosini yengillashtirding. Sen ulardan ham battar gunohlar qilib, ularni begunohday
koʻrsatding. Endi uyalgin, sharmandaligingga toqat qilgin, chunki sen opa–singillaringni
oppoq qilib koʻrsatding.

53 Ammo bir kun kelib, Men Sadoʻm va Samariyani ularning qizlari bilan birga yana
farovonlikka erishtiraman. Ular bilan birga seni ham tiklayman. 54 Shunda sen
sharmandaligingga toqat qilib, oʻzingdan oʻzing uyalib ketasan, chunki sen qilgan
qilmishlaring bilan opa–singillaringni ancha yupatding. 55 Ha, opa–singillaring Sadoʻm
va Samariya qizlari bilan tiklanadi. Sen ham qizlaring bilan qayta tiklanasan. 56 Sen
magʻrurlanib, singling Sadoʻmni mazax qilar eding. 57 Ammo endi, sening fosiqliging
butun dunyoga oshkor boʻldi. Sen Edom* qizlari va ularning hamma qoʻshnilari uchun
mazax boʻlding. Filist qizlari hamma joyda seni masxara qiladilar. 58 Sen behayoliging va
jirkanch odatlaringga yarasha jazo tortishing shart. Egamizning kalomi shudir.

Abadiy ahd

59 Egamiz Rabbiy demoqda: ey Quddus, Men qilgan qilmishingga yarasha jazoingni
beraman, chunki sen bergan vaʼdalaringni mensimading, ahdingni buzding. 60 Ammo
Men yoshligingda sen bilan tuzgan ahdimga* sodiq qolaman, sen bilan abadiy bir ahd
tuzaman. 61 Sen qilgan qilmishlaringni eslaysan. Opangni ham, singlingni* ham qabul
qilganingda uyalasan. Men ularni senga farzand qilib beraman. Buni sen bilan tuzadigan
ahddan tashqari qilaman. 62 Ha, Men sen bilan ahd tuzaman, shunda Egang Men
ekanligimni bilib olasan. 63 Men qilgan barcha gunohlaringni kechiraman, ammo sen
ularni doim yodingda tutib, xijolat boʻlasan. Uyalganingdan sen hatto ogʻzingni ham
ocha olmaysan. Egamiz Rabbiyning kalomi shudir.»”

17–BOB

Burgutlar va uzum haqida matal

1 Egamiz menga Oʻz soʻzini ayon qildi: 2 “Ey inson, Isroil xalqiga quyidagi bir matalni
aytib ber. 3 Ularga ayt: «Egamiz Rabbiy shunday demoqda: bahaybat, baroq patli, chipor
bir burgut* ulkan qanotlarini keng yoyib, Lubnon togʻlariga uchib keldi. U sadr
daraxtining* uchini ushlab, 4 uchidagi bir shoxchasini sindirib oldi. Soʻng uni
savdogarlar shahriga olib borib, u yerga oʻtqazdi. 5 Keyin Isroil yurtidan olib kelgan tok
qalamchasini unumdor yerga ekdi. Uni serob suvlar boʻyiga majnuntolday oʻtqazdi.
6 Qalamcha unib, yerda yoyilgan sernovda uzum tokiga aylandi. Uning novdalari burgut
tomon choʻzildi, tagidagi ildizlari yerga chuqur yoyildi. U tokka aylandi, novdalari
gurkirab oʻsdi, barra yaproqlar chiqardi.

7 Keyin boshqa bahaybat bir burgut* uchib keldi. Bu ulkan qanotli burgut qalin pat
bilan qoplangan edi. Shunda tok, kelgan burgut meni sugʻorar, deya oʻsgan joyidan
ildizlarini burgut tomon choʻzdi, novdalarini u tomon uzatdi. 8 Ammo tok allaqachon
serob suvlar boʻyidagi unumdor yerda oʻsayotgan edi. U unib chiqqan edi, moʻl hosil
berishga, koʻrkam uzum toki boʻlib yetishishga imkoniyati bor edi.»

9 Isroil xalqiga ayt: «Egamiz Rabbiy shunday demoqda: bu tok endi gurkirab

oʻsarmikan?! Tokni ekkan burgut uni ildizi bilan sugʻurib tashlamaydimi?! Uzumlarini uzib, barra yaproqlarini quritib yubormaydimi?! Ha, tokni sugʻurib tashlash uchun katta kuch yoki qudratli lashkar kerak emas. 10 Bordi–yu, tokni boshqa bir joyga koʻchirib oʻtqazsa, u yana koʻkararmikan?! Yoʻq, garmsel* uni batamom qovjiratib yuboradi–ku. Tok oʻsgan joyida soʻlib qoladi–ku.»"

Matalning ma'nosi

11 Egamiz menga Oʻz soʻzini ayon qildi: 12 "Bu isyonkor Isroil xalqiga shunday deb ayt: «Matalning ma'nosini tushundingizmi? Men sizlarga ma'nosini aytib beray: Bobil shohi Quddusga bostirib keldi, u yerdagi shohu* a'yonlarni oʻzi bilan Bobilga olib ketdi. 13-14 Soʻng shoh oilasiga mansub boʻlgan bir kishini* tanladi. Unga qasam ichdirib, u bilan bir sulh tuzdi. Isroil xalqi itoatkor boʻlsin, isyon koʻtarmasin, sulhga rioya qilgani uchun omon qolsin deb, Bobil shohi yurtdagi barcha nufuzli odamlarni oʻzi bilan olib ketdi. 15 Ammo yangi tanlangan Isroil shohi* Bobilga qarshi isyon koʻtardi. U Misr shohi huzuriga choparlar joʻnatdi, undan koʻmak uchun otlaru lashkar soʻradi. U muvaffaqiyat qozonarmikan?! Bunday ish qilgan odam jazosiz qolarmikan?! Sulhni buzgan kishi jazodan qochib qutularmikan?! 16 Men, Egangiz Rabbiy, barhayot Xudo boʻlganim haqi ont ichib aytamanki, bunday shoh Bobilda jon beradi. Garchi Bobil shohi uni taxtga chiqargan boʻlsa–da, u Bobil shohi bilan tuzgan sulhni buzdi, ichgan qasamini nazar–pisand qilmadi. 17 Shu sababdan Bobil shohi Quddusdagi koʻp odamlarni qatl qilish uchun shahar devoriga qiyalatib tuproq uydiradi*, qamal inshootlarini* qurdiradi. Shunda Isroilga hatto fir'avnning qudratli lashkari ham yordam bera olmaydi. 18 Chunki Isroil shohi ichgan qasamidan qaytdi, tuzgan sulhni buzdi. U Bobil shohiga soʻz bergan boʻlsa–da, ana shu ishlarni qildi! Mana endi u qochib qutula olmaydi! 19 Shuning uchun Men, Egangiz Rabbiy, barhayot Xudo boʻlganim haqi ont ichib aytamanki, ahdimni buzgan, Mening nomim bilan ichgan qasamidan qaytgan bu odam jazosiz qolmaydi. 20 Men uning ustiga toʻr tashlayman, uni Oʻz tuzogʻimga tushiraman. Menga xiyonat qilgani uchun uni Bobilga olib borib, u yerda adabini beraman. 21 Uning qochayotgan jangchilari qilichdan halok boʻladilar, omon qolganlari dunyoning toʻrt tomoniga tarqalib ketadilar. Shunda sizlarga bu soʻzlarni aytgan Egangiz Men ekanligimni bilib olasizlar.

Xudoning umidbaxsh va'dasi

22 Men, Egangiz Rabbiy, aytamanki, baland sadr daraxtining uchidan nozik bir novdani* olaman. Ulkan toqqa chiqib, uni oʻtqazaman. 23 Ha, Isroil togʻining* choʻqqisiga ekaman. Novda butoq chiqarib, hosilga kiradi, koʻrkam sadr daraxti boʻlib yetishadi. U yerda har xil qushlar yashaydi, turli parrandalar daraxtning shoxlari soyasida panoh topadi. 24 Ana oʻshanda dashtdagi hamma daraxtlar Egangiz Men ekanligimni bilib oladi. Zotan, ulkan daraxtlarni yiqitadigan Menman. Past daraxtlarni baland qilib, oʻstiradigan ham Menman. Koʻkarib turgan daraxtni qovjiratadigan ham, qovjiragan daraxtni koʻkartiradigan ham Menman. Bularni Men, Egangiz, aytdim! Aytganlarimning hammasini Oʻzim amalga oshiraman.»"

18–BOB

Shaxsiy mas’uliyat

1 Egamiz menga O‘z so‘zini ayon qildi: 2 “Nima uchun sizlar Isroil yurtida:

«Otalari nordon uzum yeyishgan edi,
Bolalarining tishi qamashdi»,

degan maqolni ishlatasizlar?

3 Men, Egangiz Rabbiy, barhayot Xudo bo‘lganim haqi ont ichib aytamanki, sizlar endi Isroilda bu maqolni boshqa aytmaydigan bo‘lasizlar. 4 Bilib qo‘ying, har bir odamning joni Menikidir. Ota–onalarning ham, bolalarning ham jonlari Menga tegishlidir. Faqat gunoh qilgan odamgina o‘ladi.

5 Bordi–yu, odam solih bo‘lib, adolatli va to‘g‘ri ishlar qilsa, 6 Isroil xalqining butlariga sig‘inmasa, butxonalarda keltirilgan qurbonliklardan tanovul qilmasa, birovning xotini bilan zino qilmasa, hayz ko‘rgan ayolga yaqinlashmasa, 7 birovga jabr qilmasa, garovga olgan narsasini qaytarib bersa, o‘g‘rilik qilmasa, ochga non, yalang‘ochga kiyim bersa, 8 bergan qarzidan foiz talab qilmasa, o‘zini gunohdan tortsa, to‘g‘ri hukm chiqarsa, 9 farmonlarimga rioya qilsa, qonun–qoidalarimni bitta qoldirmay sadoqat bilan bajarsa, Men, Egangiz Rabbiy, aytamanki, bunday odam haqiqatan ham solih hisoblanib albatta yashaydi.

10 Endi shunday solih odamning vahshiy bir o‘g‘li bor, deb faraz qilaylik. Bordi–yu, bu yaramas o‘g‘il qotillik qilsa yoki quyidagi jinoyatlarning birortasiga qo‘l ursa: 11 otasi qilmagan ishlarni qilib, butxonalarda keltirilgan qurbonliklardan tanovul qilsa, birovning xotini bilan zino qilsa, 12 kambag‘alu mazlumlarga jabr yetkazsa, o‘g‘rilikka qo‘l ursa, garovga olgan narsani qaytarmasa, butlarga sig‘insa, jirkanch odatlarga taqlid qilsa, 13 bergan qarzidan foiz talab qilsa, u yasharmidi?! Yo‘q! Bunday jirkanch ishlarga qo‘l urgan odamga o‘lim jazosi berilsin. U o‘z boshini o‘zi yegan bo‘ladi!

14 Ammo bunday fosiq kishining o‘g‘li, otasining qilgan gunohlarini ko‘rsa–yu, otasiga taqlid qilmasa, 15 Isroil xalqining butlariga sig‘inmasa, butxonalarda keltirilgan qurbonliklardan tanovul qilmasa, birovning xotini bilan zino qilmasa, 16 birovga zulm o‘tkazmasa, qarzdorlaridan kafillik talab qilmasa, o‘g‘rilik qilmasa, ochga non, yalang‘ochga kiyim bersa, 17 kambag‘alga jabr yetkazmasa*, bergan qarzidan foiz olmasa, qonun–qoidalarimga rioya qilib, farmonlarimni bajarsa, bunday odam o‘z otasining gunohlari uchun o‘ldirilmasin. U albatta yashasin. 18 Qilgan qabihliklari uchun otasining o‘zi o‘ldirilsin, chunki u birodariga jabr yetkazib, narsasini o‘g‘irladi, odamlar orasida yaramas ishlar qildi.

19 Sizlar esa: «Yo‘g‘–e, nahotki bola otasining gunohi uchun jazo tortmasa?» deb aytasizlar. Agar bola adolatli va to‘g‘ri ishlar qilsa, qonun–qoidalarimning hammasini bitta qoldirmay bajarsa, u albatta yashaydi. 20 Gunoh qilgan odamgina o‘ladi. Bola otasining gunohi uchun jazolanmaydi, ota ham bolasining gunohi uchun jazolanmaydi. Solih odamlar o‘z solihligiga yarasha mukofot oladilar, fosiqlar o‘z fosiqligi uchun jazo tortadilar.

21 Bordi–yu, fosiq odam qilgan gunohlaridan tavba qilsa, qonun–qoidalarimning hammasini bajarsa, adolatli va to‘g‘ri ishlar qilsa, u albatta yashaydi, o‘lmaydi. 22 Men

bunday odamning qilgan barcha gunohlaridan kechib yuboraman. U qilgan solih ishlari tufayli yashaydi. 23 Nahotki fosiq odamning o‘limini istasam? — deb aytmoqda Egamiz Rabbiy. — Yo‘q! Men uning yomon yo‘ldan qaytishini va yashashini istayman!

24 Yomon yo‘lga kirib ketgan solih odam–chi? Fosiqlar kabi jirkanch ishlar qilgan bunday odam yashaydimi? Yo‘q! Men uning bironta xayrli ishini esga olmayman. U Menga xiyonat qilgani uchun, gunohga qo‘l urgani uchun o‘ladi.

25 Sizlar esa: «Rabbiy noto‘g‘ri ish tutyapti», deb aytyapsizlar. Ey Isroil xalqi, gapimni tinglang: noto‘g‘ri ish tutgan Menmi yoki sizlarmi?! 26 Bilib qo‘ying, yomon yo‘lga kirib ketgan har bir solih kishi qilgan gunohi uchun o‘ladi. 27 Yomon yo‘ldan qaytgan fosiq esa adolatli va to‘g‘ri ishlar qilsa, o‘z hayotini asrab qoladi. 28 Bunday odam tutgan yo‘li noto‘g‘ri ekanligini anglab, qilgan gunohlaridan qaytgani uchun albatta yashaydi, u o‘lmaydi. 29 Shunday bo‘lsa–da, Isroil xalqi: «Rabbiy noto‘g‘ri ish tutyapti», deb aytyapti. Ey Isroil xalqi, qani, Menga ayting–chi, noto‘g‘ri ish tutgan Menmi yoki sizlarmi?!

30 Ey Isroil xalqi, har biringizni tutgan yo‘lingizga yarasha hukm qilaman, — deb aytmoqda Egamiz Rabbiy. — Tavba qilinglar! Gunohlaringizdan qaytinglar! Aks holda, gunoh boshingizga halokat keltiradi*. 31 Menga qarshi qilgan gunohlaringizdan voz kechinglar. O‘zlaringiz uchun yangi yurak va yangi ruh olinglar! Nima uchun sizlar o‘lishingiz kerak, ey Isroil xalqi?! 32 Bironta odamning halok bo‘lishini istamayman, — deb aytmoqda Egamiz Rabbiy. — Yomon yo‘ldan qaytinglar, yashanglar!”

19–BOB

Hasrat qo‘shig‘i

1 Egamiz menga Isroilning ikki shahzodasi* uchun mana shu marsiyani aytishimni buyurdi:

2 “Sening onang* qo‘rqmas bir sher edi!
U sherlar orasida o‘rnashdi,
Yosh sherlar orasida bolalarini o‘stirdi.
3 Bitta bolasi* kuchli bir sher bo‘ldi.
U ov qilishni o‘rgandi,
Odamxo‘rlik qila boshladi.
4 Buni xalqlar eshitdilar,
Sherni o‘zlarining tuzog‘iga tushirdilar.
Uni zanjirband qilib,
Misrga olib ketdilar.
5 Ona sher umidi puchga chiqqanini ko‘rdi,
Orzusi ushalmaganini bildi.
Shunda boshqa bolasini* o‘stirdi,
Uni kuchli bir sher qildi.
6 U katta bo‘lgach,
Boshqa sherlar ila izg‘iydigan bo‘ldi.
Ov qilishni o‘rgandi,
Odamxo‘rlik qila boshladi.
7 Qal’alarini buzar edi*,

Shaharlarini vayron qilardi.
Yurt va uning butun aholisi
U oʻkirganda dahshatga tushardi.
8 Atrofdagi hududlardan xalqlar
Unga hujum qildilar.
Ustiga toʻr tashlab,
Tuzogʻiga tushirdilar.
9 Zanjirband qilib, qafasga soldilar,
Bobil shohi huzuriga olib bordilar.
Isroil togʻlarida uning tovushi
Boshqa eshitilmasin deya,
Uni zindonga tashladilar.

10 Sening onang* uzumzordagi tokday edi,
Ariq boʻyiga oʻtqazilgan edi.
Suvga miriqqanidan
Sernovdayu serhosil edi.
11 Baquvvat novdalari
Saltanat hassalariga* aylandi.
Qalin shox–shabbadan ham baland koʻtarildi.
Balandligi, serbargligi bilan
Koʻzga tashlanib turar edi.
12 Ammo gʻazab ichra tok sugʻurib tashlandi,
Yerga uloqtirib yuborildi.
Sharqdan esgan shamol hosilini quritdi,
Baquvvat novdalari sinib quridi.
Hammasini olov yamlab yubordi.
13 Endi bu tok sahroga oʻtqazilgan.
Ha, suvsagan, qaqroq choʻlga ekilgan.
14 Uning poyasidan olov chiqdi,
Novdalaru mevalarini kuydirib yubordi.
Bironta baquvvat novdasi qolmadi,
Saltanat hassasiga yaramaydigan boʻldi.”

Bu marsiya qoʻshigʻidir, u motam ohangida kuylanadi.

20–BOB

Isyonkor Isroil

1 Surgun boʻlgan paytimizning yettinchi yili beshinchi oyining* oʻninchi kunida ayrim Isroil oqsoqollari Egamizga maslahat solmoqchi boʻlib, oldimga keldilar. Ular roʻparamga oʻtirdilar. 2 Shunda Egamiz menga Oʻz soʻzini ayon qildi: 3 “Ey inson, Isroil oqsoqollariga ayt: «Egamiz Rabbiy shunday demoqda: sizlar hali Menga maslahat solmoqchi boʻlib keldingizlarmi?! Men barhayot Xudo boʻlganim haqi ont ichib aytamanki, sizlarga hech qanday maslahat bermayman!»

4 Ey inson, kelgan bu odamlarni sen hukm qilishga tayyormisan? Qani, ularga ota–
bobolarining qilgan jirkanch odatlari haqida gapirib ber–chi. 5 Ularga ayt: «Egamiz
Rabbiy shunday demoqda: Men Isroil xalqini tanlab, Misrda ularga O‘zimni tanitgan
edim. O‘shanda Men ularga, Egangiz Xudo bo‘laman, deb ont ichgandim. 6 Ularni Misrdan
olib chiqishga, ular uchun tanlab qo‘ygan eng ulug‘vor yurtga — sut va asal oqib yotgan
yurtga* olib borishga ont ichgan edim. 7 O‘shanda ularga aytgan edim: ‘Har biringiz,
ko‘zingizni quvontirgan makruh butlaringizni yo‘qotinglar. Misr butlariga sig‘inib
o‘zingizni bulg‘amanglar. Egangiz Xudo Menman.’ 8 Ammo ular Menga qarshi isyon
ko‘tardilar. Gapimga quloq solmadilar. Birontasi ham makruh butini tashlamadi, Misr
xudolaridan ular voz kechmadilar.

Shunda Men qahru g‘azabimni Misrdayoq ularning ustiga yog‘dirmoqchi bo‘ldim.
9 Ammo shaxtimdan qaytdim. Isroil atrofida yashagan xalqlar oldida badnom bo‘lishni
istamadim. Chunki Men Isroil xalqini Misrdan olib chiqib, o‘sha xalqlar oldida O‘zimni
tanitgan edim. 10 Shuning uchun Men Isroil xalqini Misrdan olib chiqdim, sahroga
boshlab bordim. 11 U yerda ularga farmonlarimni berdim, qonun–qoidalarimni
bildirdim. Zotan, qonun–qoidalarimga rioya qilgan har qanday kishi yashaydi. 12 Men
ularga Shabbat kunlarimni O‘zim va ular orasidagi alomat qilib berdim. Toki ularni
muqaddas qiladigan Egasi Men ekanligimni bilishsin. 13 Ammo ular sahroda ham Menga
qarshi isyon ko‘tardilar. Farmonlarimni bajarmadilar, qonun–qoidalarimni rad etdilar.
O‘shalarga rioya qilgan kishi yashagan bo‘lardi. Ular Shabbat kunlarimni ham
bulg‘adilar.

Shunda Men sahroda ularning ustiga g‘azabimni yog‘dirib, yo‘q qilib yubormoqchi
bo‘ldim. 14 Ammo Isroilni Misrdan olib chiqqanimni ko‘rgan xalqlar oldida badnom
bo‘lmasligim uchun shaxtimdan qaytdim. 15 Shunday bo‘lsa–da, ularni dunyodagi eng
ulug‘vor yurtga, sut va asal oqib yotgan yurtga olib bormayman, deb sahroda ont
ichdim. 16 Ular qonun–qoidalarimni rad etgan edilar, farmonlarimni bajarmagan edilar,
Shabbat kunlarimni bulg‘agandilar. Qo‘yingki, qalblarini butlarga bag‘ishlagan edilar.
17 Shunga qaramay, Men ularga achindim, sahroda qirilib ketishlariga yo‘l qo‘ymadim.

18 Men ularning farzandlariga shunday deb uqtirdim: ‘Ota–bobolaringiz yo‘lidan
yurmanglar, ularning odatlariga taqlid qilmanglar, butlari bilan o‘zingizni
bulg‘amanglar. 19 Men Egangiz Xudoman. Mening farmonlarimga rioya qilinglar, qonun–
qoidalarimni bitta qoldirmay bajaringlar. 20 Shabbat kunlarimni muqaddas deb bilinglar,
chunki bular oramizdagi alomatdir. Shunda Egangiz Xudo Men ekanligimni bilib
olasizlar.’

21 Ammo farzandlari ham Menga qarshi isyon ko‘tardilar. Qonunlarimga rioya qilgan
kishi yashagan bo‘lardi. Ammo ular farmonlarimni bajarmadilar, qonun–qoidalarimga
rioya qilmadilar. Shabbat kunlarimni bulg‘adilar. Shunda Men sahroda ularning ustiga
g‘azabimni yog‘dirmoqchi bo‘ldim. 22 Ammo Isroilni Misrdan olib chiqqanimni ko‘rgan
xalqlar oldida badnom bo‘lmasligim uchun O‘zimni tiydim.

23 Shunday bo‘lsa–da, Men sahroda ont ichdim: sizlarni boshqa yurtlarga quvib
yuboraman, xalqlar orasiga tarqatib tashlayman, deb aytdim. 24 Chunki ular qonun–
qoidalarimni buzdilar, farmonlarimni rad etdilar, Shabbat kunlarimni bulg‘adilar,
ko‘ngillari ota–bobolarining butlarini tusadi. 25 Men ularga yomon qonunlarni, hayot
uchun yaroqsiz qoidalarni berdim. 26 Ularni o‘zlari keltirgan nazrlari bilan bulg‘adim.
To‘ng‘ich bolalarini qurbonlik qilib, olovda kuydirishlariga yo‘l qo‘yib berdim*. Ularni

xonavayron qilish uchun shunday qildim, toki ular Egasi Men ekanligimni bilib olishsin.»
27 Shuning uchun, ey inson, Isroil xalqiga ayt: «Egamiz Rabbiy demoqda: sizlarning
ota–bobolaringiz Menga xiyonat qilib, shak keltirar edilar. 28 Men, beraman, deb ont
ichgan yurtga ularni olib kirganimdan so‘ng, ular ko‘ziga ko‘ringan har bir baland
tepalik ustida, har bir yashil daraxt ostida o‘z xudolariga qurbonliklar keltirar edilar.
Meni qattiq g‘azablantirar edilar! O‘sha xudolariga xushbo‘y tutatqilar tutatib, sharobni
nazr qilardilar. 29 Men ulardan: ‘Sizlar o‘sha xudolarga sajda qilish uchun qayerga
borasizlar?’ deb so‘radim. Ular menga: ‘Sajdagohlarga* boramiz’, deb javob berdilar. Shu
sababdan o‘sha joylar bugungi kungacha Bamax* deb atalmoqda.»

Xudoning jazosi va kechirimi

30 Shunday ekan, Isroil xalqiga ayt: «Egamiz Rabbiy shunday demoqda: sizlar ham,
ota–bobolaringiz singari, o‘zlaringizni bulg‘amoqchimisizlar?! Menga bevafolik qilib,
makruh butlarga sig‘inmoqchimisizlar?! 31 Sizlar butlarga nazrlar keltiryapsizlar.
Bolalaringizni qurbonlik qilib, olovda kuydiryapsizlar. Bunday jirkanch qilmishlar bilan
bugunga qadar bulg‘anib kelyapsizlar. Shunday ekan, qanday qilib Mendan maslahat
so‘rashga jur’at etdingiz?! Men, Egangiz Rabbiy, barhayot Xudo bo‘lganim haqi ont ichib
aytamanki, sizlarga hech qanday maslahat bermayman.
32 Sizlar ichingizda: ‘Boshqa xalqlarga o‘xshasak edi, yog‘och va toshga sig‘inadigan
ellarday bo‘lsak edi’, deb niyat qilasizlar. Ammo bu niyatingiz amalga oshmaydi. 33 Men
barhayot Xudo bo‘lganim haqi ont ichib aytamanki, cheksiz qudratim, ajoyibotlarim va
alangali g‘azabim bilan sizlarga hukmronlik qilaman. 34 Sizlar begona xalqlar orasiga
tarqalib ketdingiz, Men sizlarni o‘sha yurtlardan olib chiqaman. Qudratim, ajoyibotlarim
va alangali g‘azabim bilan sizlarni yig‘ib olaman. 35 Sizlarni xalqlardan uzoqqa, sahroga
olib boraman. U yerda hammangizni yuzma–yuz hukm qilaman. 36 Ota–bobolaringizni
Misr sahrosida* qanday hukm qilgan bo‘lsam, sizlarni ham xuddi shunday hukm
qilaman, — deb aytmoqda Egamiz Rabbiy. 37 — Sizlarni cho‘ponning tayog‘i bilan
saralayman, ahdimga bo‘ysunishga majbur qilaman. 38 Menga qarshi gunoh qilgan
isyonkor odamlarni orangizdan yo‘q qilaman. Sizlar musofir bo‘lib yurgan yurtdan o‘sha
isyonkorlarni chiqarib yuboraman. Ammo Isroil yurtiga ular kirmaydilar. O‘shanda
Egangiz Men ekanligimni bilib olasizlar.
39 Ey Isroil xalqi, Egamiz Rabbiy shunday demoqda: Menga quloq solishni
xohlamasangiz, yo‘qolinglar! Har biringiz butlaringizga sig‘inib yuraveringlar! Ammo
nazrlaru butlaringiz bilan Meni badnom qila ko‘rmanglar. 40 Zero, ey Isroil, butun
xonadoning faqat Mening muqaddas tog‘imda, Isroilning baland tog‘ida*, o‘sha yurtda
Menga sajda qiladi, — deb aytmoqda Egamiz Rabbiy. — O‘sha yerda sizlarni qabul
qilaman. Hadyalaru a’lo in’omlaringizni, muqaddas tortiqlaringizni keltirishni
buyuraman. 41 Sizlar boshqa yurtlarga tarqalib ketgan bo‘lsangiz–da, Men sizlarni yig‘ib
olaman, xalqlar orasidan olib chiqaman. Xushbo‘y tutatqining muattar hididan mamnun
bo‘lganday, sizlardan mamnun bo‘laman. Barcha xalqlarning ko‘zi oldida O‘z
muqaddasligimni orangizda namoyon qilaman. 42 Ota–bobolaringizga ont ichib va’da
qilgan Isroil yurtiga sizlarni olib kirganimda, Egangiz Men ekanligimni bilib olasizlar.
43 Shunda sizni bulg‘agan qabih ishlaringizni, tutgan yo‘llaringizni eslab, o‘zingizdan
o‘zingiz hazar qilasizlar. 44 Men sizning egri yo‘llaringizga, qabih ishlaringizga ko‘ra, ish
tutmayman. O‘z nomim haqi, sizlarga yaxshilik qilaman. Shunda Egangiz Men

ekanligimni bilib olasizlar. Egamiz Rabbiyning kalomi shudir.»”

Janubdagi yong‘in

45 Egamiz menga O‘z so‘zini ayon qildi: 46 “Ey inson, janubga yuzlanib, Nagavdagi
o‘rmonga qarshi* bashorat qilgin. 47 Janubdagi bu o‘rmonga ayt: «Egamizning so‘zini
eshit! Egamiz Rabbiy shunday demoqda: Men sening har bir daraxtingni, ko‘karganini
ham, quriganini ham yondirib yo‘q qilaman. Avj olgan alangani hech kim o‘chira
olmaydi. Bu alanga janubdan shimolgacha bo‘lgan yer yuzini kuydirib tashlaydi. 48 Bu
olovni Men, Egang, yondirganimni butun dunyo ko‘radi. Hech kim uni o‘chira olmaydi.»”
49 Shunda men yolvorib, dedim: “Yo Egam Rabbiy, bu odamlar menga: «Hadeb
matallar bilan gapiraverasanmi?» deb aytishmoqda.”

21–BOB

Bobil shohi Egamizning qilichi timsolida

1 Egamiz menga O‘z so‘zini ayon qildi: 2 “Ey inson, Quddusga yuzlan. Isroil yurtiga va
barcha sajdagohlariga* qarshi bashorat qil. 3 Isroil yurtiga qaratib shunday so‘zlarni ayt:
«Egamiz demoqda: Men O‘zim senga qarshi chiqaman! Qilichimni* qinidan sug‘urib,
hammangizni — solihlarni ham, fosiqlarni ham yo‘q qilaman. 4 Qilichim janubdan
shimolgacha bo‘lgan hamma jonzotni qirib tashlaydi. 5 Shunda Egangiz Men ekanligimni
hamma bilib oladi. Ha, Men qilichimni qinidan sug‘uraman! Uni qaytarib joyiga
solmayman.»
6 Ey inson, siqilgan odamga o‘xshab, chuqur xo‘rsingin, qayg‘urganingni hamma
ko‘rsin. 7 Ular sendan: «Nega xo‘rsinyapsan?» deb so‘rashganda, ularga shunday javob
ber: «Noxush bir xabar eshitdim. U amalga oshganda, odamlarning yuragi orqaga tortib
ketadi, qo‘llarida mador qolmaydi, ruhi tushadi, ishtonlari ho‘l bo‘ladi. Egamiz Rabbiy
shunday demoqda: Mana o‘sha vaqt yaqinlashib qoldi! U albatta amalga oshadi.»”
8 Egamiz menga O‘z so‘zini ayon qildi: 9 “Ey inson, bashorat qilib ayt: «Rabbiy
shunday demoqda:

Mana, Men qilichimni yaltiratib charxladim.
10 Odamlarni qirish uchun qayradim.
Chaqmoq kabi chaqnashi uchun yaltiratib tozaladim.
Ammo bundan qanday xursand bo‘laylik?!
Ey o‘g‘lim Yahudo,
Qilichim saltanat hassasini* mensimaydi,
Hech qanday tayoqni pisand qilmaydi*.
11 Mana, qilichim charxlandi,
Ishlatish uchun tayyor bo‘ldi.
Yaltiratib qayraldi,
Qotil uchun hozirlandi.»

12 Ey inson, dod solib faryod qil!
Endi ko‘ksingga ur!
Zero, qilich xalqimga qarshidir,
Barcha Isroil shahzodalariga qarshidir.

Ular qilichdan nobud bo‘ladi,
Xalq qatori qirilib ketadi.
13 Bu sinov paytidir!
Qilich hatto Yahudoning saltanat hassasini
Mensimasa nima bo‘ladi?!
Saltanatning kuni bitadi,
— deb aytmoqda Egamiz Rabbiy. —

14 Ey inson, bashorat qil.
Kaftingni kaftingga uraver,
Qilich xalqimni qayta–qayta chopaversin.
Bu qirg‘in qilichidir,
Qirg‘in–barot qilichidir.
U xalqimni har tomondan siqib kelmoqda!
15 Odamlarning yuragi orqaga tortib ketdi,
Ular qo‘rquvdan qoqila boshlashdi.
Men qilichimni qirg‘in uchun o‘rnatdim,
Shaharning har bir darvozasi oldiga qo‘ydim.
Eh, mana qilichim yaltiratib tozalandi.
Odamlarni qirish uchun qinidan chiqarildi.
16 Ey qilichim, o‘ngdagilarni chop!
So‘ldagilarni chop! Hammani tig‘dan o‘tkaz!
17 Men ham kaftimni kaftimga uraman,
Shunda jahldan tushaman.
Bularni Men, Egangiz, aytdim.”

18 Egamiz menga O‘z so‘zini ayon qildi: 19 “Ey inson, xaritaga ikki yo‘lni tushir. Bobil shohi bu yo‘llardan yurib, hujum qiladi. Ikkala yo‘l ham bir joydan boshlansin. Yo‘llarning ayrilgan joyiga bir belgi qo‘y. 20 Yo‘llardan biri Bobil shohini Ommon yurtining poytaxti Rabbaga, ikkinchisi Yahudo yurtining mustahkam shahri Quddusga olib borsin. 21 Hozir Bobil shohi yo‘llar ayrilgan joyda turib, qaysi shaharga hujum qilish kerakligi haqida bosh qotiryapti. U kamon o‘qlarini silkitib, qur’a tashlayapti. But–sanamlarga maslahat solyapti, qurbonlik qilingan hayvonlarning jigariga qarab, fol ochtiryapti. 22 U o‘ng qo‘li bilan «Quddus» deb yozilgan o‘qni chiqaradi. Quddus atrofiga devorteshar qurollarni o‘rnashtiradi. Lashkariga, o‘ldir, deya buyruq beradi, ularni jangga da’vat qiladi. Darvozani buzadigan qurollarni o‘rnashtiradi, shahar devoriga qiyalatib tuproq uydiradi*, qamal inshootlarini* qurdiradi. 23 Quddus aholisi Bobil shohiga sadoqat qasamini ichgani uchun bu ularga soxta bashoratday tuyuladi. Ammo Bobil shohi ularning aybini yuziga soladi, ularni asir qilib oladi.

24 Ey Isroil xalqi, Men, Egang Rabbiy, senga aytyapman: sen ochiqchasiga isyon ko‘tarib, o‘z aybingni o‘zing fosh qilding. Qilgan har bir ishing bilan gunohlaringni ko‘rsatding. Shu bois sen asirlikka tushasan.

25 Ey buzuq, fosiq Isroil hukmdori*, sening kuning bitdi! Oxirgi jazoingning vaqt–soati yetdi! 26 Men, Egang Rabbiy, senga aytyapman: boshingdagi sallangni yech, tojingni olib tashla. Endi hammasi o‘zgaradi, xo‘rlangan odam yuksaladi, yuksalgan odam esa

xo‘rlanadi. 27 Ana vayronalar, vayronalar! Ha, Men Quddusni vayron qilaman. Ammo
shaharni hukm qiladigan odam kelmaguncha, bular sodir bo‘lmaydi. Men shaharni
o‘shaning qo‘liga beraman.
28 Ey inson, bashorat qilib ayt: «Isroilni mazax qilgan Ommon xalqi haqida Egamiz
Rabbiy shunday demoqda: ey qilich, qilich! Sen qirg‘in uchun qindan chiqarilding.
Odamlarni qirish uchun charxlanding, chaqmoq kabi chaqnash uchun yaltiratib
tozalanding! 29 Ommon xalqi sen haqingda yolg‘on vahiylar ko‘ryapti, sen to‘g‘ringda
bo‘lmag‘ur follar ochtiryapti. Sen bu yovuz fosiqlarning boshini chopib tashlaysan!
Ularning kuni bitdi, oxirgi jazosining vaqt–soati yetdi!
30 Ey Bobil shohi, qilichingni qiniga sol! Boshqalarni jazolashdan to‘xta!* Endi Men
seni ona yurtingda, tavallud topgan joyingda hukm qilaman. 31 Ustingga g‘azabimni
sochaman, qahrimning olovini senga ufuraman. Seni shafqatsizlarning qo‘liga beraman,
o‘sha mohir qotillarga topshiraman. 32 Sen olovga yem bo‘lasan, qoning ona yurtingda
to‘kiladi. Sen haqingdagi xotira abadiy o‘chadi. Egamizning kalomi shudir.»”

22–BOB

Quddusning jinoyatlari

1 Egamiz menga O‘z so‘zini ayon qildi: 2 “Ey inson, qotillar shahrini hukm qil. Uning
jirkanch odatlarini yuziga sol, 3 unga shunday deb ayt: «Egamiz Rabbiy demoqda: ey
Quddus, sen o‘z ko‘chalaringda qon to‘kib, boshingga balo orttirding. Butlar yasab,
o‘zingni bulg‘ading. 4 To‘kilgan o‘sha qon uchun sen aybdor bo‘lding, yasagan butlaring
bilan bulg‘anding. Halokat kuningni yaqinlashtirding. O‘z hayotingga yakun yasading!
Shu bois xalqlar seni mazax qilishlariga, yurtlar ustingdan kulishlariga Men yo‘l
qo‘yaman. 5 Ey yomon ot chiqargan, g‘alayonga to‘la shahar, uzoq–yaqindagilar seni
mazax qiladilar.
6 Shahardagi Isroil yo‘lboshchilari o‘z mansabidan foydalanib, qon to‘kadilar. 7 U
yerdagi odamlar ota–onasini xor qiladilar, musofirlarni aldaydilar, yetim va bevalarga
zulm o‘tkazadilar. 8 Muqaddas narsalarimni xor qilib, Shabbat kunlarimni bulg‘aydilar.
9 Ba’zilari odamlarni o‘ldirish uchun tuhmat qiladilar. Butxonalarda keltirilgan
qurbonliklardan tanovul qiladilar, o‘zlarining shahvoniy hirslarini qondirish bilan ovora
bo‘ladilar. 10 Boshqalari o‘gay onalari bilan yotadilar, hayz ko‘rgan ayollarni zo‘rlaydilar.
11 Qo‘shnining xotini bilan jirkanch ishlar qiladilar, kelinlarini uyatsizlarcha bulg‘aydilar,
tug‘ishgan singillarining nomusiga tegadilar. 12 Shahardagi ba’zi odamlar pul uchun
odam o‘ldiradilar. Bergan qarzidan foiz undiradilar, o‘zganing bor–yo‘g‘ini tortib olib,
daromad ko‘radilar. Ey Quddus aholisi, Meni unutib yubordingiz! Egamiz Rabbiyning
kalomi shudir.
13 Nohaq foyda ko‘rganingiz uchun, qon to‘kkaningiz uchun Men g‘azab ichra
kaftimni kaftimga uraman. 14 Adabingizni bergan kunim mardligingizni ko‘raman,
o‘shanda Men bilan olishishga qurbingiz yetarmikan?! Men, Egangiz, aytganlarimni
amalga oshiraman. 15 Men sizlarni xalqlar orasiga tarqatib tashlayman, boshqa yurtlarga
quvib yuboraman, iflos qilmishlaringizga chek qo‘yaman. 16 Begona xalqlar sizlarni xor
qilganda, Egangiz Men ekanligimni bilib olasizlar.»”

Egamizning o‘chog‘i

17 Egamiz menga O‘z so‘zini ayon qildi: 18 “Ey inson, Isroil xalqi Men uchun

toshqolday* qadrsiz bo‘lib qoldi. Kumush eritilgandan keyin o‘choqda qotib qolgan mis, qalay, temir va qo‘rg‘oshin qorishmasi kabidir bu xalq. 19 Ularga ayt: «Egamiz Rabbiy shunday demoqda: sizlar toshqolday bo‘lib qolganingiz uchun Men sizlarni Quddusga yig‘aman. 20 Kumush, mis, qalay, temir va qo‘rg‘oshin o‘choqqa qanday yig‘ilsa, eritish uchun tagiga olov qanday yoqilsa, Men xuddi shunday qahru g‘azab bilan sizlarni yig‘aman, hammangizni shaharda eritib yo‘q qilaman. 21 Ha, Men sizlarni Quddusga yig‘ib olaman, g‘azabim olovini sizlarga sochaman. Sizlar erib yo‘q bo‘lib ketasizlar. 22 Kumush o‘choqda eriganday, sizlar qahrim o‘tida erib yo‘q bo‘lasizlar. Shunda ustingizga g‘azab o‘tini sochgan Egangiz Men ekanligimni bilib olasizlar.»”

Isroil yo‘lboshchilarining gunohlari

23 Egamiz menga O‘z so‘zini ayon qildi: 24 “Ey inson, Isroil xalqiga shunday deb ayt: «Sizlar qahr kunida poklanmagan, ustiga yomg‘ir yog‘magan bir yurtdirsiz.
25 Yurtingizdagi shahzodalar* o‘kirayotgan, o‘ljasini tilka–pora qilayotgan sherga o‘xshaydi. Ular odamxo‘rlik qiladilar, mulku boylikni qo‘lga kiritadilar, qotilliklar qilib, bevalarning sonini ko‘paytiradilar. 26 Ruhoniylaringiz qonunimni buzib, muqaddas narsalarimni bulg‘adilar. Muqaddas bilan oddiy narsaning farqiga bormadilar. Odamlarga nima haromu nima halol ekanini o‘rgatmadilar, Shabbat kunlariga rioya qilmadilar, xullas, xalqim orasida Meni beobro‘ qildilar. 27 Yurtingizdagi yo‘lboshchilar o‘ljasini tilka–pora qilayotgan bo‘riga o‘xshaydilar. Ular boylik orttirish uchun qon to‘kadilar, odamlarning jonini oladilar. 28 Payg‘ambarlaringiz esa devorni oqlagan mardikorlar kabi, bu gunohlarni yashirib, ustidan oqlaydilar. Yolg‘on vahiylar ko‘rib, soxta bashoratlar aytadilar. Men ularga gapirmasam ham, ‘Egamiz Rabbiy shunday demoqda’ deb gapiradilar. 29 Yurtingizdagi odamlar qallobligu o‘g‘rilik qiladilar, kambag‘alu nochorni ezadilar, musofirning bor–yo‘g‘ini tortib oladilar, haqini talab qilishga yo‘l qo‘ymaydilar.

30 Devorni qayta quradigan, devorning o‘pirilib tushgan joyida turib, yurtni himoya qiladigan birorta odam bormikan, deya sizlarning orangizdan izladim. Ammo yurtni qahrimdan saqlab qoladigan bunday odamni topa olmadim. 31 Shuning uchun Men sizlarga qahrimni sochaman, hammangizni g‘azabim olovida yo‘q qilaman. Qilgan qilmishlaringizga yarasha jazoingizni beraman. Egamiz Rabbiyning kalomi shudir.»”

23–BOB

Fohisha opa–singillar: Samariya va Quddus

1 Egamiz menga O‘z so‘zini ayon qildi: 2 “Ey inson, bir onadan tug‘ilgan ikki opa–singil bor edi. 3 Ular Misrda fohishalik qilardilar. Yoshligidan fahsh yo‘liga kirgandilar. Qizlik ko‘kragi u yerda silandi, emchaklari siypalandi. 4 Kattasining ismi Oxola, kichkinasining ismi Oxolibo edi. Men ikkovini ham O‘z nikohimga olgan edim, ular Menga o‘g‘il–qizlar tug‘ib berishdi. Oxola Samariyani, Oxolibo Quddusni bildiradi*.

5 Oxola Mening nikohimda bo‘la turib, fohishalik qilar edi. U o‘ynashlari bo‘lgan Ossuriyalik jangchilarga hirs qo‘ygan edi. 6 Ularning hammasi kelishgan yigitlar, zangori libos kiygan, ot mingan hokimu lashkarboshilar edi. 7 Oxola Ossuriyaning hamma sara erkaklari bilan fohishalik qilar edi. Hirs qo‘ygan har bir erkakning butlariga sig‘inib, o‘zini bulg‘ab yurardi. 8 U Misrda qilgan fohishaliklarini tashlamadi. Yoshligida erkaklar u bilan yotishgan edi, qizlik ko‘kragini silab, shahvatini qondirishgan edi. 9 Shu sababdan

Men uni oʻynashlarining qoʻliga topshirib qoʻydim. U hirs qoʻygan oʻsha
Ossuriyaliklarning qoʻliga berdim. 10 Ular Oxolani qip–yalangʻoch qildilar, uni oʻldirdilar.
Oʻgʻil–qizlarini oʻzlariga qul qilib oldilar. Jazosini tortgan Oxola ayollarning ogʻzidan
tushmay qoldi.
11 Singlisi Oxolibo bularni koʻrdi. Shunday boʻlsa–da, suyuqoyoqligi va fohishaligi
bilan opasidan oʻtib tushdi. 12 U ham oʻsha Ossuriyalik hokimu lashkarboshilarga, qurol–
aslahalar taqqan otliq xushbichim jangchilarga hirs qoʻydi. 13 Men Oxoliboning
bulgʻanganini koʻrdim, opasi bilan bir yoʻlni tanlaganini bildim. 14 U borgan sari
fohishalikka berilib ketar edi. Bir kuni u Bobilliklarning* devorga tushirilgan rasmlarini
koʻrib qoldi. Ular qizil rangga boʻyalgan edi. 15 Bellarida kamar, boshlarida koʻrkam salla
bilan tasvirlangan edilar. Ular Xaldey* yurtida tugʻilgan Bobil otliq sarkardalariga
oʻxshar edilar. 16 Oxolibo oʻsha rasmlarni koʻrdi–yu, shahvat uning qonini qizdira
boshladi. U Bobilga choparlar joʻnatib, Bobilliklarni oʻz huzuriga chorladi. 17 Bobilliklar
uning oldiga kirdilar, ishq toʻshagiga u bilan yotdilar, oʻz hirsi bilan uni bulgʻadilar.
Oxolibo bulgʻangandan keyin Bobilliklardan jirkanib ketdi, ulardan yuzini oʻgirdi. 18 U
fohishalikka berilib, yalangʻoch badanini hammaga koʻz–koʻz qilganda, Men undan
jirkanib ketdim, opasidan yuz oʻgirganimday undan ham yuzimni oʻgirdim. 19 U esa
yoshlik davrini, Misrda qilgan behayoligini eslab, yanada koʻp fohishalik qilaverdi.
20 Jinsiy aʼzolari eshaklarnikiday, maniylari aygʻirlarnikiday boʻlgan oʻynashlariga hirs
qoʻydi. 21 Yoshligida qilgan behayoliklarini qaytarmoqchi boʻldi. Oʻsha paytlarda
Misrliklar emchaklarini siypalagan edilar, qizlik koʻkraklarini silagan edilar.

Quddus timsolidagi Oxoliboni Xudo jazolaydi

22 Shuning uchun, Oxoliboga ayt: «Egamiz Rabbiy shunday demoqda: sen oʻsha
oʻynashlaringdan jirkanib, ulardan yuzingni oʻgirgansan, ammo Men oʻshalarni senga
qarshi qoʻzgʻataman. Ular har tomondan kelib, senga hamla qiladilar. 23 Men
Bobilliklarni, Paxoʻd, Shoʻva va Qoʻvadan kelgan hamma Xaldeylarni*, jamiki
Ossuriyaliklarni boshlab kelaman. Ot mingan oʻsha xushbichim yosh aslzodalarni,
hokimu lashkarboshilarni, sarkardayu zodagonlarni yigʻib kelaman. 24 Ular
qurollanadilar, senga qarshi jang aravalari, yuk aravalari va talay lashkarni tortib
keladilar. Boshiga dubulgʻa kiygan, qoʻliga qalqon va sipar tutgan jangchilar seni
qurshovga oladilar. Hukm qilishlari uchun Men seni ularning qoʻliga topshiraman. Ular
seni oʻz qonunlariga muvofiq hukm qiladilar. 25 Men ustingga qahrimni yogʻiraman,
lashkarlar seni shafqatsizlarcha jazolaydilar. Ular burning va quloqlaringni kesib
tashlaydilar, omon qolgan har bir odamni qilichdan oʻtkazadilar. Oʻgʻil–qizlaringni asir
qilib oladilar, omon qolganlarni yondirib yuboradilar. 26 Ustingdagi kiyimlarni yechib
oladilar, qimmatbaho taqinchoqlaringni olib ketadilar. 27 Sen Misrda boshlagan
fohishaligu suyuqoyoqligingga Men shu yoʻsin chek qoʻyaman. Bularga boʻlgan
ishtiyoqing yoʻqoladi, sen Misrni unutib yuborasan.
28 Zero, seni oʻzing nafratlangan, jirkanib, yuzingni oʻgirgan odamlarning qoʻliga
topshiraman, — deb aytmoqda Egamiz Rabbiy. 29 — Ular nafrat bilan seni jazolaydilar,
topgan–tutganingni tortib oladilar. Seni yalangʻoch, hech vaqosiz tashlab ketadilar.
Fohishaliging ochiladi, sharmanda boʻlasan. Suyuqoyoqliging, fohishaliging 30 tufayli shu
ahvolga tushasan. Sen boshqa xalqlar bilan fohishalik qilding, ularning butlari bilan
bulgʻanding. 31 Sen opangning yoʻlidan ketding, shuning uchun Men opangga ichirgan

jazo kosasidan* senga ham ichiraman. 32 Ha, Men, Egang Rabbiy, aytamanki:

Sen ham opangning kosasidan ichasan,
U kosa katta va chuqurdir.
Seni mazax qilishadi, ustingdan kulishadi,
U kosa limmo–lim to‘ladir.
33 Sen qayg‘uga botib mast bo‘lasan.
Ha, bu dahshatu vayronalik kosasidir,
Opang Samariyaning kosasidir.
34 Sen kosani oxirigacha ichasan,
Uni chil–chil sindirasan.
Ko‘ksingni yulib, faryod qilasan.
Bularni Men, Egang Rabbiy, aytdim.

35 Egamiz Rabbiy shunday demoqda: sen Meni unutib, Menga orqa o‘girganing uchun, fohisha va suyuqoyoq bo‘lganing uchun jazo tortasan.»”

Ikki opa–singil timsolidagi Samariya va Quddusni Xudo jazolaydi

36 Egamiz menga dedi: “Ey inson, sen Oxola va Oxoliboni hukm qilishga tayyormisan? Tayyor bo‘lsang, ularning jirkanch odatlarini yuzlariga sol. 37 Axir, ular zino qildilar, qonli jinoyatlarga qo‘l urdilar. Butlari bilan zino qilib, Mendan ko‘rgan bolalarini o‘sha butlarga taom nazri sifatida qurbonlik qilib, olovda kuydirdilar*. 38 Bundan tashqari, o‘sha vaqtning o‘zidayoq muqaddas maskanimni harom qildilar, Mening Shabbat kunlarimni bulg‘adilar. 39 Bolalarini butlarga atab so‘ygan kuni muqaddas maskanimga kirib, uyimni harom qildilar!

40 Ular uzoq yurtlarga choparlar jo‘natib, erkaklarni o‘z huzuriga chorladilar. Ular yetib kelganlarida, bu opa–singillar yuvinib–tarandilar, ko‘zlariga surma surdilar, taqinchoqlar bilan bezanib oldilar. 41 Dasturxon tuzalgan serhasham supaga o‘tirdilar. O‘sha dasturxon ustiga Mening xushbo‘y tutatqimni va moyimni qo‘ydilar.
42 Xonalaridan aysh–ishrat qilayotgan erkaklarning ovozi kelar edi. Sahrodan kelgan bu mayxo‘r qalang‘i–qasang‘ilar* opa–singillarning qo‘llariga bilaguzuklar taqdilar, boshlariga chiroyli tojlar kiydirdilar.

43 Shunda men: «Bu ayollar fohishalik qilaverib, holdan toyganlar. Nahotki kelganlar ularning bu ahvolini ko‘ra turib, ular bilan jinsiy aloqa qilishsa?!» deb o‘yladim ichimda.
44 Kelgan erkaklar bu suyuqoyoqlar bilan birga bo‘lishdi. Ular, fohishaning oldiga kirganday, qayta–qayta Oxola va Oxoliboning oldiga kiraverishdi. 45 Solih odamlar esa bu ikki opa–singilni zinokorlik va qotillikda ayblaydilar, chunki opa–singillar zinoga ruju qo‘yib, qo‘llarini qonga beladilar.

46 Oxola va Oxoliboga ayt: «Egamiz Rabbiy shunday demoqda: sizlarga qarshi bir olomonni yig‘ib kelaman. Ular sizlarni azoblab, bor–yo‘g‘ingizni tortib oladilar.
47 Sizlarni toshbo‘ron qilib, tanalaringizni nimtalab tashlaydilar, o‘g‘il–qizlaringizni o‘ldiradilar, uylaringizga o‘t qo‘yadilar. 48 Shu yo‘sin Men yurtdagi bu behayolikka chek qo‘yaman. Buni ko‘rgan boshqa ayollar o‘zlari uchun saboq oladilar, bunday behayolikni boshqa qilmaydigan bo‘ladilar. 49 Sizlar o‘z behayoligingiz tufayli jabr tortasizlar, gunohkor butparastligingizning jazosini olasizlar. O‘shanda Egangiz Rabbiy Men ekanligimni bilasizlar.»”

24–BOB

Iflos qozon

1 Surgun boʻlgan paytimizning toʻqqizinchi yili oʻninchi oyining* oʻninchi kunida
Egamiz menga Oʻz soʻzini ayon qildi: 2 “Ey inson, bu kunning sanasini yozib qoʻy, chunki
Bobil shohi bugun Quddusni qamal qildi*. 3 Bu isyonkor xalqimga matal soʻzlab ayt:
«Egamiz Rabbiy shunday demoqda: oʻchoqqa oʻt yoqing, qozonga suv quying. 4 Qozon
ichiga eng yaxshi goʻshtlardan — son va yelka goʻshtlaridan soling, ilikli suyaklar bilan
qozonni toʻldiring. 5 Suruvning sara qoʻchqoridan soʻying, oʻchoqqa koʻproq oʻtin*
yigʻing, qozondagi suvni qaynating, goʻshtu suyaklarni obdan pishiring.
6 Egamiz Rabbiy shunday deb aytmoqda: qotillar shahri Quddusning holiga voy! Bu
shahar qasmoqli qozon kabidir, uning qasmogʻi ketmaydigan boʻlib qolgan. Qani,
qozonni bir chekkadan boʻshating, qoʻlingizga nima ilinsa, olib ketavering. 7 Shahar
ichida qotillik qilindi, odamlarning qoni qoyatoshga toʻkildi. Oʻsha qon yerga toʻkilganda
edi, tuproq bilan koʻmilib ketardi. 8 Men qonni oʻsha qoya ustida qoldirdim, uni yashirib
boʻlmaydi. Men uni koʻrganimda gʻazabim alanga oladi, u Meni qotillardan qasos olishga
undaydi.
9 Shuning uchun Egamiz Rabbiy aytmoqda: qotillar shahri Quddusning holiga voy!
Men Oʻzim oʻtinni baland qilib uyaman. 10 Qani, koʻproq shox–shabbalarni yigʻayin, katta
olov yoqayin! Goʻsht obdan pishsin, shoʻrvasi qaynab yoʻq boʻlsin*. Suyaklar esa olovda
yonib kuyib ketsin. 11 Qozonni boʻshatayin, koʻmir ustiga qoʻyayin! Temir qozonni
qizarguncha qizdirayin. Ichidagi iflosliklari erib ketsin, qasmoqlari olovda kuyib, yoʻq
boʻlsin. 12 Eh, Oʻzimni behuda urintiribman. Qozonning qalin qasmogʻi ketmadi. Uni
qasmogʻi bilan olovga tashlanglar!
13 Ey Quddus, sen behayoliging bilan oʻzingni bulgʻading. Men seni tozalab koʻrdim,
ammo sen haromligingcha qolding. Endi ustingga Oʻz qahrimni sochmagunimcha sen
poklanmaysan. 14 Men, Egang, shunday dedim. Aytganlarimni amalga oshiradigan vaqt
keldi. Endi Oʻzimni tutib turmayman. Senga achinmayman, Oʻz shaxtimdan
qaytmayman. Tutgan yoʻllaringga, qilgan qilmishlaringga yarasha seni jazolayman.
Egamiz Rabbiyning kalomi shudir.»”

Hizqiyolning xotini olamdan oʻtadi

15 Egamiz menga Oʻz soʻzini ayon qildi: 16 “Ey inson, Men oʻlat yuborib, seni koʻzing
quvonchidan judo qilaman. Ammo sen aza tutma, faryod qilma, koʻz yosh toʻkma.
17 Ingragan tovush chiqarma, oʻlgan aziz odaming uchun motam tutma. Sallangni
yechma, oyoq yalang yurma. Yuzingni yopma, ta’ziyaxonalarda yeyiladigan ovqatdan
yema.” 18 Ertalab men xaloyiqqa gapirdim. Oʻsha kuni kechqurun esa mening xotinim
olamdan oʻtdi. Ertasi kuni men Xudoning aytganini qildim.
19 Odamlar mendan:
— Nimaga bunday qilyapsan? Bu bilan bizga biron narsa aytmoqchimisan? — deb
soʻradilar.
20 Men ularga shunday javob berdim:
— Egamiz menga Oʻz soʻzini ayon qilib, 21 Isroil xalqiga shu gaplarni aytib
qoʻyishimni buyurdi: “Egamiz Rabbiy shunday demoqda: faxrlanadigan qoʻrgʻoningiz,
koʻzingiz quvonchi, yuragingiz orzusi boʻlmish muqaddas maskanimni Men harom

qildiraman. Quddusda qolgan o‘g‘il–qizlaringiz qilichdan halok bo‘ladi. 22 Shunda
Hizqiyol nima qilgan bo‘lsa, sizlar ham shuni qilasizlar. Sizlar yuzingizni yopmaysizlar,
ta’ziyaxonalarda yeyiladigan ovqatdan yemaysizlar, 23 sallangizni yechmaysizlar, oyoq
yalang yurmaysizlar, aza tutmaysizlar, faryod qilmaysizlar. Gunohlaringiz sizlarni adoyi
tamom qiladi, dardingizni bir–biringizga ingrab aytasizlar. 24 Hizqiyol sizlar uchun bir
alomat bo‘ladi, u hozir nima qilayotgan bo‘lsa, sizlar ham shuni qilasizlar. O‘sha vaqt
kelganda bu ishlarni Men, Egangiz Rabbiy, qilganimni bilib olasizlar.”

25 Egamiz menga shunday dedi: “Ey inson, Men xalqimning qo‘rg‘onini, zavqu
shuhratini, ko‘z quvonchi, yurak orzusi bo‘lmish Ma’badni vayron qilgan kunim o‘g‘il–
qizlarini ham qirdirib tashlayman. 26 Qirg‘indan qochib qutulgan bir odam o‘sha kuni
yoningga keladi. U bo‘lib o‘tgan voqealarni senga so‘zlab beradi. 27 Shunda sen yana tilga
kirasan*. Kelgan o‘sha odam bilan gaplashasan, boshqa sukut saqlamaysan. Xullas,
xalqim uchun bir alomat bo‘lasan, shunda Egangiz Men ekanligimni ular bilib oladilar.”

25–BOB

Ommon xalqi haqida bashorat

1 Egamiz menga O‘z so‘zini ayon qildi: 2 “Ey inson, Ommon* xalqiga yuzlan, ularga
qarshi bashorat qil. 3 Ommon xalqiga ayt: «Egamiz Rabbiyning so‘zlarini eshiting!
Egamiz Rabbiy shunday demoqda: muqaddas maskanim harom qilinganda, Isroil yurti
xarob bo‘lganda, Yahudo xalqi surgun qilinganda, sizlar: ‘Aha!’ deya xursand bo‘lgan
edingizlar. 4 Shuning uchun Men sizlarni sharqdagi ko‘chmanchilar qo‘liga topshiraman.
Ular yurtingizda qarorgohlar qurib, chodirlarini tikadilar, hosilingizni yeb, sutingizni
ichadilar. 5 Men poytaxtingiz Rabbani tuyalar uchun dashtga aylantiraman. Butun
yurtingizni qo‘ylar uchun qo‘ra qilaman. O‘shanda Egangiz Men ekanligimni bilib
olasizlar.

6 Egamiz Rabbiy shunday deb aytmoqda: sizlar yuragingizdagi butun g‘araz bilan
Isroilning baxtsizligidan sevindingizlar, chapak chalib, sakrab o‘ynadingizlar. 7 Shu
qilganingiz uchun Men qo‘limni sizlarga qarshi ko‘taraman. Sizlarni boshqa xalqlarga
o‘lja qilib beraman. Xalqlar orasidan sizlarni yo‘q qilib, yurtingizni yer yuzidan supurib
tashlayman. O‘shanda Egangiz Men ekanligimni bilib olasizlar.»”

Mo‘ab xalqi haqida bashorat

8 Egamiz Rabbiy shunday demoqda: “Mo‘ab* xalqi*: «Yahudo xalqining boshqa
xalqlardan hech qanday farqi yo‘q», deb aytgani uchun, 9 Men Mo‘abning g‘arbiy
qanotini ochib tashlayman, yurtning gavharlari Bayt–Yashimo‘t, Baal–Miyon, Xiratayim
shaharlarini vayron qilaman. 10 Mo‘abni Ommon xalqi singari, sharqdagi
ko‘chmanchilarning qo‘liga beraman. Ommon xalqi yer yuzidan yo‘q bo‘lib ketadi,
11 Men Mo‘ab xalqini ham jazolayman. Shunda ular Egasi Men ekanligimni bilib oladilar.”

Edom xalqi haqida bashorat

12 Egamiz Rabbiy shunday demoqda: “Edom* xalqi Yahudodan o‘ch olib, katta gunoh
qildi. 13 Shu sababdan Men ularga qarshi qo‘limni ko‘tarib, Edom yurtini vayron qilaman,
— deb aytmoqda Egamiz Rabbiy. — Odamu hayvonlarini qirib tashlayman. Temon
shahridan tortib, to Dedon shahrigacha* bo‘lgan hammani qilichdan o‘tkazaman.
14 Xalqim Isroil orqali Edomdan qasos olaman. Ular orqali qahru g‘azabimni Edomliklar

ustiga sochaman. Shunda Edom xalqi qasosim nima ekanligini bilib oladi.” Egamiz Rabbiyning kalomi shudir.

Filistlar haqida bashorat

15 Egamiz Rabbiy shunday demoqda: “Asrlar davomida Filistlar* adovat qilib,
xalqimdan o‘ch oldilar. Xalqimni xonavayron qilish maqsadida, yuraklaridagi g‘arazga
berilib, ulardan qasos oldilar. 16 Shu sababdan Men Filist yurtiga qarshi qo‘limni
ko‘taraman, Xaret xalqini* yo‘q qilaman, sohilda qolganlarning hammasini qirib
yuboraman, — deb aytmoqda Egamiz Rabbiy. 17 — Men ulardan dahshatli qasos olaman,
g‘azabim ustida ularni jazolayman. O‘shanda Egasi Men ekanligimni bilib oladilar.”

26–BOB

Tir shahri haqida bashorat

1 Surgun bo‘lgan paytimizning o‘n birinchi yili*, oyning birinchi kunida Egamiz
menga O‘z so‘zini ayon qildi: 2 “Ey inson, mana, Tir* Quddus haqida shunday deb
aytmoqda: «Aha! Xalqlarning savdo darvozasi buzildi. Menga keng yo‘l ochildi. Endi u
vayron bo‘lganda, men boyib ketaman.»
3 Shuning uchun Tirga ayt: «Egamiz Rabbiy demoqda: Men senga qarshiman! Men
ko‘plab xalqlarni senga qarshi yig‘aman, ular dengiz to‘lqinlari kabi senga yopiriladilar.
4 Shahringning devorlarini buzib, minoralaringni qulatadilar. Men tuprog‘ingni supurib
tashlayman, seni yalang‘och bir toshloq holiga keltiraman. 5 Dengiz o‘rtasidagi bu
orolda* baliqchilar to‘rlarini yoyib quritadigan bo‘ladilar. Axir, bularni Men aytdim.
Shahring xalqlarga o‘lja bo‘ladi. 6 Senga qarashli sohildagi hamma qishloqlar ahli
qilichdan o‘tkaziladi. O‘shanda Egang Men ekanligimni sen bilib olasan.
7 Egamiz Rabbiy demoqda: senga qarshi eng buyuk shohni — Bobil yurtining
hukmdori Navuxadnazarni qo‘zg‘ataman. U sening ustingga shimoldan otlaru jang
aravalarini, suvorilaru katta lashkarni tortib keladi. 8 Bobil shohi senga qarashli barcha
qishloqlaringni qilichdan o‘tkazadi. Shahar atrofiga qamal inshootlarini* qurdiradi,
shahar devoriga qiyalatib tuproq uydiradi*, senga qarshi qalqonlarini o‘rnatadi.
9 Devorteshar qurollar bilan devorlaringga zarba beradi. Boltalar bilan minoralaringni
buzadi. 10 Devoridan teshik ochilgan shaharga odamlar bostirib kirganday, Bobil shohi
sening darvozalaringdan bostirib kiradi. Suvorilarining, g‘ildiragu jang aravalarining
shovqinidan devorlaring titraydi. Son–sanoqsiz otlarining ko‘targan changi seni qoplab
oladi. 11 Otlarining tuyoqlari hamma ko‘chalaringni toptaydi. Odamlaring qilichdan
yiqiladi, ulkan ustunlaring yer bilan yakson bo‘ladi. 12 Dushman boyliklaringni talab
ketadi, mollaringni o‘lja qilib oladi. Devorlaringni yiqitadi, hashamatli uylaringni vayron
qiladi, toshlari, yog‘ochlari, hatto tuprog‘ini ham dengizga uloqtiradi. 13 Men
qo‘shiqlaringga chek qo‘yaman. Arfangning navolari ham eshitilmaydigan bo‘ladi. 14 Men
seni yalang‘och bir toshloqqa aylantiraman, baliqchilar to‘rlarini quritadigan bir yer
bo‘lasan. Hech kim shahringni qayta qurmaydi. Axir, bularni Men aytdim. Egamiz
Rabbiyning kalomi shudir.»
15 Yana Tirga ayt: «Egamiz Rabbiy shunday demoqda: shahringda qirg‘in bo‘lganda,
yaradorlar ingraganda, qulashingning shovqinidan sohildagi barcha xalqlarni titroq
bosadi. 16 Dengiz bo‘yidagi saltanatlarning shohlari taxtlaridan tushib, zar choponu
naqsh solingan liboslarini yechishadi. Ular vahimaga burkanib, yerga o‘tirishadi.

Boshingga kelgan kulfatdan dahshatga tushib, to‘xtovsiz titrashadi. 17 Ular sen haqingda
shunday marsiya kuylashadi:

‘Ey dong taratgan dengizchilar shahri,
Naqadar vayron bo‘lib ketding–a!
Sen va sening aholing dengiz qudrati edingiz,
Sohildagi barcha xalqlarni dahshatga solar edingiz.
18 Sen qulagan kuning sohillarni titroq bosdi,
Halokatingdan dengizdagi orollar sarosimaga tushdi.’

19 Egamiz Rabbiy shunday demoqda: ey Tir, Men seni huvullagan xarobazorga
aylantiraman. Dengiz tubidagi ulkan suvlar bilan vayronalaringni qoplayman. 20 Seni
go‘rga*, qadimda o‘tib ketgan odamlar oldiga tushiraman. Sen yer osti saltanatida
yashaysan, abadiy vayronalar orasidagi marhumlarga hamroh bo‘lasan. Tiriklar
dunyosiga hech qachon qaytib kelmaysan, obod bo‘lib ilgarigi mavqeingga erishmaysan.
21 Ha, Men boshingga dahshatli o‘lim keltiraman, seni yo‘q qilaman. Seni qidirganlar
hech qachon topa olmaydilar. Egamiz Rabbiyning kalomi shudir.»”

27–BOB

Tir shahri haqida marsiya

1 Egamiz menga O‘z so‘zini ayon qildi: 2 “Ey inson, Tir* haqida bir marsiya kuyla.
3 Dengiz bo‘yidagi yurtlar bilan savdo–sotiq qiladigan, dengiz darvozasida o‘rnashgan
Tir shahriga ayt:

«Egamiz Rabbiy shunday demoqda:
Ey Tir, sen: ‘Go‘zallikda barkamolman’, deding.
4 Ha, sening chegaralaring dengiz bag‘ridan o‘tgan,
Quruvchilaring go‘zalligingni barkamol qilgan.
5 Xermon tog‘idagi* archa yog‘ochidan qurilgan
Ulkan bir kemaday eding sen.
Quruvchilaring machtangni yasash uchun
Lubnondan keltirilgan sadr yog‘ochini* ishlatdilar.
6 Eshkaklaringni Bashan emanlaridan yasadilar.
Kema sahnini Kipr* qarag‘aylaridan qildilar,
Fil suyagi bilan uni bezatdilar.
7 Yelkanlaring Misrdan keltirilgan naqshli matolardan edi,
Ular senga bayroq bo‘lib xizmat qilardi.
Elishox qirg‘oqlaridan olib kelingan
Ko‘k va safsar gazlamalar soyaboning edi.
8 Sidon va Arvod* odamlari eshkaklaringni eshar edi,
O‘z mohir odamlaring esa kemalaringni boshqarar edi.
9 Gabollik* tajribali kemasozlaring bor edi,
Ular kemangning yoriqlarini saqichlardi.
Barcha kemalaru dengizchilar kelib,
Sening mollaringni sotib olishar edi.

[10] Fors, Lidiya va Liviya* yurtlarining askarlari
Saflaringda xizmat qilar edi.
Qalqonu dubulg‘alarini devorlaringga osib,
Seni salobatli qilishar edi.
[11] Arvod va Xelekdan* kelgan odamlar
Devorlaringda soqchilik qilishardi,
Gamadliklar minoralaringni qo‘riqlashardi.
Devorlaringga qurollarini osib,
Go‘zalligingni barkamol qilishardi.

[12] Sening boyliklaring shu qadar ko‘p ediki, hatto Tarshish* aholisi sen bilan savdo–sotiq qilardi. Ular kumush, temir, qalay va qo‘rg‘oshinni mollaringga ayirboshlashardi. [13] Yunonlar*, Tuval va Meshex* xalqlari sen bilan savdo–sotiq qilar edi. Mollaring evaziga qullarni va bronza buyumlarni berishar edi. [14] To‘xarmoliklar* aravaga qo‘shiladigan otlarni, jang otlariyu xachirlarini mollaringga almashtirishardi. [15] Ro‘don* xalqi sen bilan savdo–sotiq qilar edi. Dengiz sohilidagi ko‘p yurtlar sening xaridorlaring edi. Ular fil suyagi va obnus yog‘ochini* senga to‘lov sifatida berishardi.
[16] Mollaring behisob bo‘lgani uchun Oram* xalqi ham sen bilan savdo–sotiq qilardi. Mollaring evaziga qimmatbaho firuza toshlarni, safsar matolarni, naqsh solingan gazlamalarni, mayin zig‘ir matolarini, marjonu yoqutlarni olib kelardi. [17] Yahudo va Isroil yurtlari sen bilan oldi–sotdi qilishardi. Ular mollaring evaziga Minnitdan keltirilgan bug‘doyni, shuningdek, shirinliklar, asal, zaytun moyi va mumiyo olib kelishardi. [18] Sening cheksiz boyliklaring, turli xil mollaring tufayli, Damashq aholisi sen bilan savdo–sotiq qilardi. Mollaring evaziga ular Xelbon* sharobini va oppoq yungni* olib kelishardi. [19] Uzol shahridan sharob keltirib*, sen bilan oldi–sotdi qilishardi. Ishlov berilgan toza temirni, dolchin va xushbo‘y qamishni mollaringga almashtirishardi.
[20] Dedonliklar* senga ot terligini* sotishar edi. [21] Qo‘zichoq, qo‘chqor va echkilar bilan seni ta’minlagan Arabiston va Kedar* shahzodalari mollaringni xarid qilishardi. [22] Shava va Ramo* savdogarlari sen bilan savdo–sotiq qilishardi. Mollaring evaziga eng a’lo ziravorlarni, qimmatbaho toshlaru oltinni berishardi. [23] Xoron, Xannox va Eden shaharlari hamda Shava, Oshur va Xilmad* savdogarlari sen bilan savdo–sotiq qilishardi. [24] Ular qimmatbaho liboslar, ko‘k matolar, naqsh solingan ko‘ylaklar, rang–barang gilamlar, puxta eshilgan arqonlarni senga sotishardi. [25] Tarshish* kemalari karvonlaring bo‘lib xizmat qilardi.

Sen dengizda suzgan bir kemadaydirsan,
Og‘ir yuk senga yuklangan.
[26] Evoh, eshkakchilaring seni ochiq dengizga olib chiqishadi.
Sharq shamoli seni dengiz bag‘rida parchalab yuboradi.
[27] Kemang halokatga uchragan kuni
Mollaring, boyliklaring,
Dengizchilaring, darg‘alaring,
Kemasozlaring, savdogarlaring,
Jangchilaring va kemadagi odamlaring
Dengiz tubiga cho‘kib, halok bo‘ladilar.

28 Cho‘kayotgan darg‘alaring faryod qiladi,
Dodlari sohillarni larzaga soladi.

29 Hamma eshkakchilar kemalarini tark etadi,
Dengizchilaru darg‘alar sohilga chiqib oladi.
30 Ular sen uchun faryod qiladi,
Achchiq–achchiq ko‘z yoshlar to‘kadi.
Boshlaridan tuproq sochadi,
Kulga belanib, yotib oladi.
31 Seni deb sochlarini qirdiradi,
Qanorga o‘ranib oladi*,
Qayg‘udan yurak–bag‘ri qon bo‘ladi.
32 Ular yig‘lab, sen haqingda marsiya kuylaydi:
‘Tir kabi bironta shahar bormi?!
Dengiz uni o‘z qa’riga tortib ketdi.’

33 Sen dengiz ortidan keltirgan mollaring bilan,
Ko‘plab xalqlarning ehtiyojini qondirding.
Cheksiz ziynatlaru mollaring bilan
Dunyo shohlarini sen boyitding.
34 Endi esa dengiz seni parchaladi,
O‘z domiga seni tortib ketdi.
Barcha mollaringu dengizchilaring
Sen bilan birga nobud bo‘ldi.
35 Sohildagi xalqlar kulfatingni ko‘rib, dahshatga tushadi.
Qo‘rquvdan shohlarning afti burishib ketadi.
36 Ahvolingdan dunyo savdogarlari yoqasini ushlaydi.
Ha, sening boshingga dahshatli o‘lim keldi,
Sen abadiy yo‘q bo‘lasan.»”

28–BOB

Tir shohi haqida bashorat

1 Egamiz menga O‘z so‘zini ayon qildi: 2 “Ey inson, Tir* shohiga ayt: «Egamiz Rabbiy shunday demoqda: sen mag‘rurlanib ketding. ‘Men xudoman, dengiz bag‘ridagi xudolar taxtida o‘tiribman’, deb aytding. Sen o‘zingni xudoday dono deb bilasan, axir, sen xudo emas, insonsan–ku! 3 Nahotki Doniyordan* ham dono bo‘lsang?! Nahot barcha sirlarni bilsang?! 4 Sen donoliging va aqling bilan o‘zingga davlat orttirding, xazinalaringni oltinu kumushga to‘ldirding. 5 Savdo–sotiqdagi iqtidoring bilan ko‘p davlat yig‘ding. Ammo boyliging tufayli mag‘rurlanib ketding.

6 Egamiz Rabbiy shunday demoqda: sen o‘zingni xudoday dono deb bilganing uchun,
7 Men ustingga begona xalqni tortib kelaman. Ular o‘taketgan yovuz xalqdir. Ular go‘zalliging va donoligingga qarshi chiqib, qilich yalang‘ochlaydilar. Hashamatingni oyoq osti qiladilar. 8 O‘zingni esa tubsiz chuqurlikka uloqtiradilar. Ha, sen dengiz bag‘rida azoblanib jon berasan. 9 Shunda, jallodlaring oldida ‘men xudoman’, deb

aytarmikansan?! Axir, qotillaring qo‘lida sen xudo emas, oddiy bir inson bo‘lasan! [10] Sen musofirlar qo‘lida sunnatsizlar kabi o‘lasan. Bularni Men aytdim. Egamiz Rabbiyning kalomi shudir.»”

Tir shohi haqida marsiya

[11] Egamiz menga yana shunday dedi: [12] “Ey inson, Tir shohi haqida marsiya ayt: «Egamiz Rabbiy shunday demoqda:

Ey Tir shohi, sen barkamollikning a’lo namunasi bo‘lding.
Nihoyatda dono, go‘zallikda barkamol eding.
[13] Sen Xudoning bog‘i Adanda yashar eding.
Qizil yoqut, xrizolit, olmos,
Topaz, aqiq, yashma,
Zangori yoqut, firuza va zumrad* kabi
Qimmatbaho toshlar bilan bezanar eding.
Taqinchoqlaring oltindan yasalgan edi.
Sen yaralgan kuning bular tayyorlangandi.
[14] Men seni soqchi karub qilib tanladim,
O‘sha martabaga seni tayinladim.
Sen Xudoning tog‘ida yashar eding,
Olovday tovlangan toshlar orasida yurar eding.
[15] Bino bo‘lganingdan to qabihlik qilguningga qadar,
Sen to‘g‘ri yo‘ldan yurding.
[16] Katta tijorating tufayli,
Yovuzlikka to‘lib, gunoh qilding.
Men seni sharmandalarcha Xudoning tog‘idan haydadim.
Ey soqchi karub, Men seni chiqarib yubordim,
Olovday tovlangan toshlar orasidan haydadim.
[17] Sen go‘zalliging tufayli mag‘rurlanib ketgan eding.
Savlating tufayli aql–farosatdan voz kechgan eding.
Shuning uchun Men seni yerga uloqtirdim,
Shohlar oldida sharmandangni chiqardim.
[18] Sen cheksiz gunohlaring bilan,
Savdo–sotiqdagi nohaqliklaring bilan,
O‘z sajdagohlaringni bulg‘ading.
Shuning uchun Men ichingdan olov chiqardim,
Seni kuydirib tashladim.
Odamlarning ko‘zi oldida kulingni ko‘kka sovurdim.
[19] Seni bilgan xalqlar ahvolingni ko‘rib, dong qotdilar.
Sening boshingga dahshatli o‘lim keldi,
Sen abadiy yo‘q bo‘lasan.»”

Sidon shahri haqida bashorat

[20] Egamiz menga O‘z so‘zini ayon qildi: [21] “Ey inson, Sidon* shahriga yuzlan, unga qarshi bashorat qilib ayt: [22] «Egamiz Rabbiy shunday demoqda: ey Sidon, Men senga qarshiman! Seni jazolab, sen orqali muqaddasligimni ayon qilaman, shu tariqa orangda

O‘zimni ulug‘layman. O‘shanda Egang Men ekanligimni bilib olasan. 23 Men seni
dahshatli o‘latga giriftor qilaman. Ko‘chalaringda qon daryo bo‘lib oqadi. Dushmanlaring
senga har tomondan hamla qiladi, odamlarning jasadlari shahar ichida yotadi. O‘shanda
Egang Men ekanligimni bilib olasan.»”

Kelajakda Isroil oladigan barakalar

24-25 Egamiz Rabbiy shunday demoqda: “Isroil xalqidan hazar qilib, zulm o‘tkazgan
bironta qo‘shni xalq bundan buyon Isroil xalqi uchun tikan va yantoqday bo‘lmaydi.
Isroil xalqi Egasi Rabbiy Men ekanligimni bilib oladi. Men tarqatib yuborgan xalqim
Isroilni uzoq yurtlardan O‘zim yig‘ib olaman. Ular orqali barcha xalqlarga
muqaddasligimni ayon qilaman. Men qulim Yoqubga mulk qilib bergan yerda ularni
o‘rnashtiraman. 26 Ular osoyishta hayot kechiradilar. Uylar qurib, uzumzorlar barpo
qiladilar. Ulardan hazar qilgan qo‘shni xalqlarni jazolaganim uchun xalqim bexatar,
tinch yashaydi. O‘shanda Egasi Xudo Men ekanligimni bilib oladi.”

29–BOB

Misr haqida bashorat

1 Surgun bo‘lgan paytimizning o‘ninchi yili o‘ninchi oyining* o‘n ikkinchi kunida
Egamiz menga O‘z so‘zini ayon qildi: 2 “Ey inson, Misr fir’avniga yuzlan. Unga va butun
Misr xalqiga qarshi bashorat qilib ayt: 3 «Egamiz Rabbiy shunday demoqda: ey Misr
fir’avni, Men senga qarshiman. Sen Nil havzalarida cho‘zilib yotgan bamisoli buyuk
ajdarhodirsan. Sen: ‘Nil daryosi mening shaxsiy mulkim, uni o‘zim uchun yaratganman’,
deb aytasan. 4 Ammo Men jag‘laringga ilmoqlar solaman. Teringdagi tangachalaringga
baliqlarni* yopishtiraman. Seni tangachalaringga yopishgan baliqlar bilan birga
quruqlikka tortib chiqaraman. 5 Men seni va havzalaringdagi hamma baliqlarni sahroga
uloqtirib tashlayman. Sen ochiq maydonda yotasan. Seni olib, ko‘madigan odam
bo‘lmaydi. Men seni dasht hayvonlariyu osmon qushlariga yem qilib beraman. 6 Shunda
butun Misr xalqi Egangiz Men ekanligimni bilib oladi.

Sen xalqim Isroil uchun qamish hassaday bo‘lding. 7 Ular seni ushlaganda, sen
yorilib, qo‘llarini kesib yubording. Senga suyanganlarida sinib, bellarini chiqarib
yubording*.

8 Shu bois Egamiz Rabbiy aytmoqda: Men sening boshingga qilich keltiraman, odamu
hayvonlaringni qilich tig‘idan o‘tkazaman. 9 Butun Misr yurtini tashlandiq xarobazorga
aylantiraman. O‘shanda Egangiz Men ekanligimni bilib olasizlar.

Sen: ‘Nil meniki, men o‘zim uni yaratdim’, deb aytganing uchun, 10 Men senga va
sening barcha havzalaringga qarshi chiqaman. Butun Misr yurtini tamomila xarob
qilaman. Migdoldan tortib, to Savanaygacha va janubdagi Habashiston* hududigacha
hamma yerlarini tashlandiq qilaman. 11 Odam u yerga oyog‘ini bosmaydi, hayvonlar ham
u yerdan yurmaydi. Qirq yil mobaynida u yerda hech kim yashamaydi. 12 Men Misr
yurtini dunyodagi eng xarob yurtga aylantiraman. U yerdagi shaharlar qirq yil
mobaynida tashlandiq bo‘lib yotadi, vayronalari boshqa shaharlardan battar bo‘ladi.
Men Misrliklarni xalqlar orasiga tarqatib tashlayman, boshqa yurtlarga quvib
yuboraman.»

13 Fir’avnga yana ayt: «Egamiz Rabbiy shunday demoqda: qirq yil o‘tgach, Men
xalqlar orasiga tarqatib yuborgan Misrliklarni yig‘ib olaman. 14 Ularni yana farovonlikka

erishtirib, oʻz ona yurti Patroʻsga* olib kelaman. Ularning shohligi ojiz bir shohlik boʻladi. 15 Ha, ular dunyoning eng ojiz shohligi boʻlib, hech qachon boshqa xalqlardan ustun boʻla olmaydi. Men ularni shu qadar zaif qilib qoʻyamanki, ular oʻz hukmini boshqa xalqlarga oʻtkaza olmay qoladi. 16 Xalqim Isroil endi hech qachon oʻz umidini Misrga bogʻlamaydi. Ular Misrdan yordam soʻrab, gunoh qilganlarini doimo eslarida tutadilar. Oʻshanda Misrliklar Egangiz Rabbiy Men ekanligimni bilib oladilar.»”

Shoh Navuxadnazar Misrni bosib oladi

17 Surgun boʻlgan paytimizning yigirma yettinchi yili birinchi oyining* birinchi kunida Egamiz menga Oʻz soʻzini ayon qildi: 18 “Ey inson, Bobil shohi Navuxadnazar Tirga qarshi shiddatli urush olib bordi*. Bobil lashkarining sochlari toʻkilib, yelkalari shilinib yalligʻlandi. Ammo qilgan mehnatlariga yarasha ular Tirdan hech qanday oʻlja ololmadilar. 19 Shu bois Misr yurtini Bobil shohi Navuxadnazarga beraman, — deb aytmoqda Egamiz Rabbiy. — U Misrni talon–taroj qilib, u yerdagi boyliklarni oʻzi bilan olib ketadi. Misr boyliklari Bobil lashkari uchun mehnat haqi boʻladi. 20 Ha, Men Misr yurtini Bobil shohiga mehnat haqi qilib berdim, chunki u va uning lashkari Mening xizmatimni qildilar, — deb aytmoqda Egamiz Rabbiy. 21 — Oʻsha kuni Men Isroil xalqining qudratini tiklayman*. Bu soʻzlarimni xalqimga yetkazishing uchun Men senga kuch beraman. Oʻshanda Egangiz Men ekanligimni ular bilib oladilar.”

30–BOB

Misr haqida marsiya

1 Egamiz menga Oʻz soʻzini ayon qildi: 2 “Ey inson, Misr haqida bashorat qilib ayt: «Egamiz Rabbiy shunday demoqda:

Shoʻrimiz qursin, evoh!
3 Dahshatli kun yaqinlashdi,
Mening gʻazab kunim* kelishiga oz qoldi.
Mana shu kun bulutli kun boʻladi,
Xalqlar kulfat chekadigan zamon boshlanadi.
4 Misrning boʻgʻziga qilich keladi,
Habashiston* kulfat azobida qoladi.
Misrda koʻp odamlar halok boʻladi,
Uning boyligi olib ketiladi,
Poydevori buzib tashlanadi.

5 Habashiston, Liviya, Lidiya*, butun Arabiston, Kub* va Misrning qolgan barcha ittifoqchilari jangda halok boʻladilar.

6 Egamiz aytmoqda: Misr ittifoqchilarining ustiga qirgʻin keladi. Ular qilich tigʻidan halok boʻlib, jasadlari shimoldagi Migdoldan to janubdagi Savanaygacha yotadi. Misrning magʻrur qudrati halok boʻladi, — deb aytmoqda Egamiz Rabbiy. 7 — Misr dunyoning eng xarob yurtiga aylanadi, u yerdagi shaharlar vayron boʻladi. 8 Men Misrga oʻt qoʻyib, uning madadkorlarini tor–mor qilaman. Shunda Egasi Men ekanligimni Misrliklar bilib oladilar.

9 Oʻsha kuni xotirjam yashayotgan Habashistonliklarni qoʻrqitish uchun Men

kemalarda elchilarimni jo‘nataman. Misr ustiga kulfat tushgan kuni Habashistonliklar azobda qoladilar. Mana, o‘sha kun hademay keladi.
10 Egamiz Rabbiy shunday demoqda: Men Bobil shohi Navuxadnazar orqali Misrning
to‘dasini yakson qilaman. 11 Navuxadnazar qo‘shin tortib keladi. Ular o‘taketgan yovuz
xalqdir. Ular butun yurtni xarob qiladilar. Misrliklarni qilichdan o‘tkazib, yurtni
jasadlarga to‘ldiradilar. 12 Men Nil havzalarini quritaman, yurtni razil odamlarning
qo‘liga beraman. Kelgindilarning qo‘li bilan Misrni va u yerdagi hamma narsani xarob
qilaman. Bularni Men aytdim.
13 Egamiz Rabbiy shunday demoqda: Men barcha butlarni yo‘q qilaman, Nuf*
ma’budalariga chek qo‘yaman. Misr yurtida bironta hukmdor qolmaydi, Misrliklarni
qo‘rquv qamrab oladi. 14 Men Patro‘sni* tashlandiq joyga aylantiraman. Zo‘van shahriga
o‘t qo‘yaman, Misr poytaxti No‘ni* jazolayman. 15 Misrning mustahkam Sin qal’asini
g‘azabimga giriftor qilaman, poytaxt shahar No‘ning to‘dasini qirib tashlayman. 16 Butun
Misr yurtiga o‘t qo‘yaman! Sin aholisi cheksiz azobda qoladi, No‘ shahrining devori
yiqitiladi, dushmanlar kuppa–kunduzi Nuf shahriga hujum qiladi. 17 On* va Pi–Bashat*
yigitlari jangda halok bo‘lishadi, shaharlar aholisi asirlikka tushadi. 18 Men Misrning
hukmronligini yo‘q qilganimda, uning pesh qilgan qudratini sindirganimda, Taxpanxas
shahri qorong‘ilikka botadi, uni qora bulutlar qoplab oladi. Shahar atrofidagi qishloqlar
asirlikka tushadi. 19 Shu yo‘sin Men Misrni jazolayman. O‘shanda ular Egasi Men
ekanimni bilib oladilar.»”

Fir’avnning singan qo‘li haqida bashorat

20 Surgun bo‘lgan paytimizning o‘n birinchi yili birinchi oyining* yettinchi kunida
Egamiz menga O‘z so‘zini ayon qildi: 21 “Ey inson, Men Misr fir’avnining qo‘lini
sindirdim. Hech kim uning qo‘lini bog‘lamadi, taxtakachlab qo‘ymadi. Endi uning qo‘li
shifo topmaydi, qilich ushlashga qodir bo‘lmaydi. 22 Men fir’avnga qarshiman, — deb
aytmoqda Egamiz Rabbiy. — Uning ikkala qo‘lini — sog‘ qo‘lini ham, singan qo‘lini ham
sindiraman. Qo‘lidagi qilichni yerga tushirib yuboraman. 23 Misrliklarni xalqlar orasiga
tarqatib tashlayman, boshqa yurtlarga quvib yuboraman. 24 Bobil shohining kuchiga esa
kuch qo‘shib, qo‘llariga qilichimni tutqazaman. Ha, Men fir’avnning qo‘llarini
sindiraman, u dushmani oldida og‘ir yaralangan odam kabi ingraydi. 25 Uning qo‘llari
arqonday osilib qoladi, Bobil shohining qo‘llarini esa Men kuchli qilaman. Uning
qo‘llariga qilichimni tutqazib, Misrga qarshi yuboraman. Shunda Egasi Men ekanligimni
Misrliklar bilib oladilar. 26 Ha, Men Misrliklarni xalqlar orasiga tarqatib tashlayman,
boshqa yurtlarga quvib yuboraman. O‘shanda Egasi Men ekanligimni ular bilib oladilar.”

31–BOB

Misrning qismati sadr daraxti timsolida

1 Surgun bo‘lgan paytimizning o‘n birinchi yili uchinchi oyining* birinchi kunida
Egamiz menga O‘z so‘zini ayon qildi: 2 “Ey inson, Misr fir’avni va uning to‘dasiga shunday
deb ayt:

«Buyukligingda senga teng keladigan kim bor?!
3 Ossuriyaga bir qara!
U ham bamisoli Lubnondagi sadr daraxti* edi,

Ko‘rkam shoxlari o‘rmonga soya solar edi,
Uning uchi bulutlarga tegib turardi.
4 Suvlar uni sug‘orar edi,
Yer osti buloqlari uni o‘stirar edi.
Anhor suvlari ildizlarining atrofida oqar edi,
Irmoqlari hamma dasht daraxtlarini to‘ydirardi.
5 Bu ulkan sadr baland o‘sib,
Atrofdagi hamma daraxtlardan daroz bo‘ldi.
Mo‘l sug‘orilgani uchun novdalari o‘sdi,
Shoxlari uzun va sersoya bo‘ldi.
6 Barcha osmon qushlari shoxlarida in qurardi,
Ostida barcha yovvoyi hayvonlar bolalashardi,
Soyasida hamma buyuk xalqlar yashardi.
7 Bu daraxt ko‘rkam, salobatli edi,
Uning shoxlari keng yoyilgan edi.
Axir, ildizlari serob suvdan bahra olardi.
8 Xudoning bog‘i — Adandagi birorta sadr
Unga teng kela olmas edi,
Birorta archa uning butoqlari bilan bellasha olmasdi.
Birorta chinorning bunday shoxlari yo‘q edi,
Xudoning bog‘idagi birorta daraxt shu qadar go‘zal emasdi.
9 Xudo uni go‘zal qilib yaratdi,
Shox–butoqlarini serfayz qildi.
Xudoning bog‘i — Adandagi hamma daraxtlar unga havas qilardi.

10 Shu bois Egamiz Rabbiy shunday deb aytmoqda: ey fir’avn, bu sadr daraxti baland o‘sib, uchi bulutlarga yetdi. U balandligidan mag‘rurlanib ketdi. 11 Men uni ajnabiy hukmdorning* qo‘liga topshirdim. U o‘sha daraxtni fosiqligiga yarasha jazoladi. Men O‘zim esa bu daraxtdan voz kechdim. 12 Ajnabiylarning eng yovuz xalqi uni yiqitib, tashlab ketdi. Chopilgan shoxlari qirlaru vodiylarda, singan butoqlari yurtning hamma jarliklarida sochilib yotdi. Soyasida orom olgan jahonning hamma xalqlari tarqalib ketdi. 13 Barcha osmon qushlari ag‘darilib yotgan daraxt tanasiga kelib qo‘ndi, barcha yovvoyi hayvonlar shoxlari orasiga kirib yotdi, 14 toki suv bo‘yiga o‘tqazilgan birorta daraxt endi bu qadar baland bo‘lib o‘smasin. Ularning uchi bulutlarga tegmasin. Suvga to‘ygan birorta daraxt shunchalik baland bo‘lmasin. Ularning hammasi, foniy bandalar kabi, bu dunyodan o‘tib ketishadi, qabrdagi marhumlarga hamroh bo‘lishadi.

15 Egamiz Rabbiy demoqda: o‘sha ulkan daraxt o‘liklar diyoriga* tushganda, unga aza tutishlari uchun Men yer osti suvlarini berkitgan edim. Daryolariga to‘siq qo‘ygan edim, serob suvlarini to‘xtatgan edim. Uni deb Lubnon tog‘lariga zulmat libosini kiydirgan edim. Uni deb hamma o‘rmon daraxtlari xazon bo‘lgan edi. 16 Men o‘sha daraxtni chuqurdagi marhumlarga hamroh qilib, o‘liklar diyoriga tushirganimda, daraxtning qulashi shovqinidan xalqlar qo‘rquvga tushib, titragan edi. O‘shanda Adan bog‘ining yer qa’riga tushgan hamma daraxtlari, Lubnonning eng sara, eng a’lo, yaxshi sug‘orilgan hamma daraxtlari uning qulashidan taskin topgan edi. 17 Uning panasida yashagan ittifoqchilarining hammasi daraxt bilan birga o‘liklar diyoriga tushishgan. Ular qilich

tig‘idan halok bo‘lganlarga qo‘shilishgan.
18 Ey fir’avn, sening shon–shuhratingu salobatingni Adandagi qaysi daraxtga
qiyoslasam bo‘lar ekan–a? Sen ham Adandagi boshqa daraxtlar singari, yer qa’riga
tushasan. Qilichdan halok bo‘lgan sunnatsizlar bilan birga go‘rda yotasan. Sen va
to‘dangning qismati xuddi Ossuriyanikiday bo‘ladi. Egamiz Rabbiyning kalomi shudir.»”

32–BOB

Fir’avn ajdarho timsolida

1 Surgun bo‘lgan paytimizning o‘n ikkinchi yili o‘n ikkinchi oyining* birinchi kunida
Egamiz menga O‘z so‘zini ayon qildi: 2 “Ey inson, fir’avnga shunday marsiya kuyla:

«Sen o‘zingni xalqlar orasidagi sher deb bilasan.
Ammo sen suvdagi ajdarho kabidirsan!
Sen irmoqlaringdagi suvni ko‘pirtirasan,
Oyoqlaring bilan uni loyqalatasan.

3 Egamiz Rabbiy shunday demoqda:

Bir talay xaloyiq yig‘ilganda,
Men ustingga to‘r tashlayman.
Ular esa seni qirg‘oqqa tortib chiqarishadi.
4 Men seni yerga uloqtiraman,
Yalanglikka tashlab qo‘yaman.
Osmondagi barcha qushlarni ustingga qo‘ndiraman.
Yer yuzidagi hamma yovvoyi hayvonlarga
Seni yem qilib beraman.
5 Ichak–chovoqlaringni qirlarga yoyib tashlayman,
Vodiylarni jasading qoldiqlari bilan qoplayman.
6 Yurtni oqqan qoning bilan sug‘oraman,
Tog‘larni qoningga bo‘ktiraman.
Jarliklarni qoningga to‘ldiraman.
7 Seni daf qilganimda, osmonni to‘sib qo‘yaman,
Yulduzlarni zulmatga cho‘ktirib yuboraman.
Quyosh yuzini bulut bilan qoplayman,
Oy nurini so‘ndiraman.
8 Boshing uzra porlagan
Hamma osmon chiroqlarini o‘chiraman.
Yurtingni zulmat quchog‘iga otaman,
— deb aytmoqda Egamiz Rabbiy. —

9 Men qulashing haqidagi xabarni xalqlar orasiga yoyaman, sen bilmagan yurtlarga
yetkazaman. Shunda ko‘p xalqlarning yuraklariga vahima solaman. 10 Boshingga
tushiradigan kulfatlar bois ko‘p xalqlarning aqlini shoshiraman. Qilichimni o‘ynatib, sen
tufayli ularning hukmdorlarini titrataman. Boshingga kulfat kelgan kuni, ularning har
biri jonini hovuchlab, qaltiraydi.»

11 Fir’avnga ayt: «Egamiz Rabbiy shunday demoqda: Bobil shohining qilichi
bo‘g‘zingda bo‘ladi. 12 Lashkaring o‘taketgan yovuz xalqning qo‘liga tushadi. Ular
qudratli jangchilar tig‘idan o‘ladi. Sening g‘ururing poymol etiladi, to‘da lashkaring
halok bo‘ladi. 13 Serob suvlar bo‘yidagi hamma podalaringni Men qirib tashlayman.
Bundan buyon birorta inson oyog‘i bilan suvlarni loyqalatmaydi, birorta hayvon
tuyoqlari bilan uni bulg‘amaydi. 14 Men Misr suvlarini tindiraman, irmoqlarini moyday
sokin oqadigan qilaman, — deb aytmoqda Egamiz Rabbiy. 15 — Men Misrni tashlandiq
qilganimda, u yerdagi hamma narsani yo‘q qilganimda, butun aholisini qirib
tashlaganimda, ey fir’avn, sen va xalqing Egangiz Men ekanligimni bilib olasizlar.
16 Sizlar uchun aytiladigan marsiya shudir. Ajnabiy ayollar bu marsiyani kuylashar. Ha,
bu motam she’rini Misr va uning to‘dasiga bag‘ishlab aytishar. Egamiz Rabbiyning
kalomi shudir.»”

Misrliklar o‘liklar diyoriga tushadi

17 O‘sha oyning* o‘n beshinchi kunida Egamiz menga O‘z so‘zini ayon qildi: 18 “Ey
inson, Misr va uning to‘dasi uchun qayg‘urib yig‘la. Ularni boshqa buyuk xalqlar qatorida
go‘rdagi marhumlar oldiga* jo‘nat. 19 Ularga shunday deb ayt: «Sizlar o‘zingizni
boshqalardan go‘zal deb bilasizmi? Qani boring, sunnatsizlar bilan bir go‘rda yoting!
20 Sizlar jangda halok bo‘lganlar bilan birga jon berasiz. Mana, qilich hozirlandi! U
hammalaringizni qirib tashlasin. 21 O‘liklar diyoridagi* buyuk sarkardalar sizlarni va
ittifoqchilaringizni qarshilab olishadi. Ular shunday deb hayqirishadi: ‘Bu sunnatsizlar
jangda halok bo‘ldi, yer bag‘riga tushib keldi, endi shu yerda yotibdi!’

22 Ossuriya ham u yerda, sipohlarining qabrlari orasida yotibdi. Ularning hammasi
qilichdan halok bo‘lishgan. 23 Qabrlari chuqurlikning eng tubidadir. Ossuriyaning qabri
sipohlarining qurshovida joylashgan. Ha, tiriklar dunyosiga dahshat solganlarning
hammasi qilichdan halok bo‘ldi.

24 Elam* ham o‘sha yerda, bir to‘da sipohlarining qabrlari orasida yotibdi. Ularning
hammasi jangda halok bo‘lgan. Bu sunnatsizlar narigi dunyoga ketgan. Ular tiriklar
dunyosiga dahshat solishgan edi, endi esa go‘rdagi marhumlar singari isnodga qolishdi.
25 O‘ldirilganlar orasida Elam uchun to‘shak hozirlangan. Bir to‘da sipohlari uning
atrofiga dafn qilingan. Jangda halok bo‘lgan bu sunnatsizlar qachonlardir tiriklar
dunyosiga dahshat solishgan edi, endi esa go‘rdagi marhumlar singari isnodga qolishdi.
Ha, ular halok bo‘lganlar orasida o‘rnashishdi.

26 Meshex bilan Tuval* ham o‘sha yerdadir. Ular sipohlarining qabrlari orasida
yotishibdi. Bu sunnatsizlarning hammasi jangda halok bo‘lishgan. Biroq ular ham
qachonlardir tiriklar dunyosiga dahshat solishgan edi. 27 Qadimda qahramonlarni*
qurol–aslahalari bilan birga dafn qilishar edi*. Marhumlarning boshi ostiga qilich qo‘yib,
tanasini qalqon bilan yopishar edi*. Biroq Meshex bilan Tuval bunday hurmat–
ehtiromlarga sazovor bo‘lmadi, chunki ular tirikligida butun jahonga dahshat solishgan
edi. 28 Ular ham yo‘q qilinadi. Jangda halok bo‘lgan sunnatsizlar bilan birga yotadi.

29 Edom ham o‘z shohlariyu rahnamolari bilan o‘sha yerdadir. Ular o‘z qudratiga
qaramay, o‘ldirilganlar orasiga dafn qilinganlar. Go‘rdagi sunnatsizlar bilan birga
yotishibdi.

30 Shimoldagi saltanatlarning hamma shahzodalari* va hamma Sidonliklar o‘sha
yerdadir. Ular qachonlardir buyuk qudrati bilan butun jahonni dahshatga tushirishgan

edi, so‘ng sharmandalarcha halok bo‘lishdi. Bu sunnatsizlar qilichdan halok bo‘lganlar orasida yotishibdi. Ular go‘rdagi marhumlar singari isnodga qolishdi.»

31 Fir’avn va uning to‘dasiga ayt: «Egamiz Rabbiy shunday demoqda: ey o‘z
to‘dasidan ayrilgan fir’avn, sen bu cheksiz qabristonning manzarasini ko‘rib, taskin
topasan. 32 Sen orqali butun jahonni dahshatga solgan bo‘lsam ham, endi barcha
qo‘shinlaring bilan birga jangda halok bo‘lgan sunnatsizlar orasida yotasan. Egamiz
Rabbiyning kalomi shudir.»”

33–BOB

Xudo Hizqiyolni soqchi qilib tayinlaydi

1 Egamiz menga O‘z so‘zini ayon qildi: 2 “Ey inson, xalqing oldiga borib shunday
so‘zlarni ayt: «Bordi–yu, Men biron–bir yurtga qilich yubormoqchi bo‘lsam, o‘sha
yerdagi xalq o‘ziga bir soqchini tayinlaydi. 3 Soqchi yaqinlashib kelayotgan yov
qo‘shinlarini ko‘rgach, burg‘u chalib bu haqda butun xalqni ogohlantiradi. 4 Bordi–yu,
burg‘u ovozini eshitgan odamlar beparvolik qilib halok bo‘lishsa, ularning qoni o‘z
gardanida qoladi. 5 Ular burg‘u ovozini eshitib turib, unga e’tibor bermaganlari uchun
o‘z boshini o‘zlari yegan bo‘ladilar. Ular ogohlantirishga e’tibor berganda, jonlarini
saqlab qolishlari mumkin edi, axir! 6 Bordi–yu, soqchi yaqinlashib kelayotgan yov
qo‘shinini ko‘rib turib, burg‘u chalmasa, u xalqni ogohlantirmagan bo‘ladi. Halok bo‘lgan
odamlar o‘z gunohlari dastidan o‘ladilar, biroq ularning o‘limi uchun Men soqchini
javobgar qilaman.»

7 Shu singari, ey inson, Men seni Isroil xalqi uchun bir soqchi qilib tayinladim. Sen
og‘zimdan chiqqan har bir so‘zimni xalqimga aytib, ularni ogohlantirasan. 8 Bordi–yu,
Men fosiqqa: «Ey fosiq, sen o‘lasan», deb aytsam–u, sen esa unga gapirmasang, uni
yomon yo‘ldan qaytarish uchun ogohlantirmasang, o‘sha fosiq o‘z gunohi dastidan*
o‘ladi, biroq uning o‘limi uchun Men seni javobgar qilaman. 9 Bordi–yu, sen o‘sha fosiqni
ogohlantirsang–u, u esa yomon yo‘lidan qaytmasa, u o‘z gunohi dastidan o‘ladi, sen esa
joningni saqlab qolgan bo‘lasan.

Odamning shaxsiy mas’uliyatlari

10 Ey inson, Isroil xalqiga ayt: «Sizlar shunday deb aytasizlar: ‘Qilgan gunohlarimiz
bizni bosib qoldi. Biz ado bo‘lyapmiz. Bunday ahvolda yashab bo‘ladimi, axir?!’ 11 Egamiz
Rabbiy shunday demoqda: Men barhayot Xudo bo‘lganim haqi ont ichib aytamanki,
fosiqning halokatidan sevinmayman. Aksincha, fosiqlar yomon yo‘lidan qaytib,
yashashini xohlayman. Ey Isroil, orqaga qayt! Yomon yo‘ldan qayt! Nima uchun halok
bo‘lishing kerak?!»

12 Ey inson, xalqing oldiga borib ayt: «Agar solih odam yomon yo‘lga kirsa, qilgan
savob ishlari uni qutqara olmaydi. Agar fosiq odam to‘g‘ri yo‘lga kirsa, qilgan gunohlari
uni halokatga yetaklamaydi. Gunohga qo‘l urgan solih odam esa jonini saqlab
qololmaydi.» 13 Ey inson, bordi–yu, Men solih odamga hayot va’da qilsam–u, u odam esa
solihligiga ishonib, gunohga qo‘l ursa, uning qilgan savob ishlari hisobga olinmaydi.
Qilgan gunohi tufayli u o‘ladi. 14 Bordi–yu, fosiq odamga: «Sen o‘lasan», deb aytsam–u, u
odam esa yomon yo‘lidan qaytib to‘g‘ri, adolatli ishlar qilsa, 15 garovga olgan narsani
egasiga bersa, o‘g‘irlagan narsasini qaytarsa, yomonlikdan voz kechib, hayotbaxsh
qonun–qoidalarga rioya qilsa, bunday odam albatta yashaydi, u o‘lmaydi. 16 Men uning

qilgan birorta gunohini esga olmayman. O‘sha odam to‘g‘ri va adolatli ishlar qilgani uchun albatta yashaydi.

17 Ey inson, sening xalqing «Rabbiyning tutgan yo‘li nohaq–ku!» deb shikoyat qiladi.
Aslida esa o‘zlarining yo‘llari nohaq. 18 Haq yo‘ldan ozgan va gunohga qo‘l urgan solih
kishi qilgan gunohi uchun halok bo‘ladi. 19 Yomon yo‘ldan qaytib to‘g‘ri, adolatli ishlar
qilgan fosiq kishi esa qilgan to‘g‘ri ishlari uchun jonini saqlab qoladi. 20 Ular esa:
«Rabbiyning tutgan yo‘li nohaq–ku», deb aytadi. Ularga Mening shu so‘zlarimni ayt: «Ey
Isroil xalqi, bilib qo‘y, Men hammangizni qilgan ishingizga yarasha hukm qilaman.»”

Quddusning qulashi haqidagi xabar

21 Surgun bo‘lgan paytimizning o‘n ikkinchi yili o‘ninchi oyining* beshinchi kunida
Quddusdan qochib kelgan bir odam oldimga kelib: “Quddus quladi”, deb aytdi.
22 Bundan bir kun avval, kechasi, Egamizning qudrati meni qamrab olgan edi. Ertalab
qochoq kelmasdan oldin, Egamiz menga gapirish iqtidorini qaytarib bergan edi*. Men
yana tilga kirgan edim.

Xalqning gunohlari

23 Egamiz menga O‘z so‘zini ayon qildi: 24 “Ey inson, Isroilning xarob shaharlarida
yashab yurgan odamlar shunday deb yurishibdi: «Ibrohim yolg‘iz o‘zi bo‘la turib, butun
yurtga egalik qilar edi. Biz esa ko‘pchilikmiz. Bizning ham bu yurtga egalik qilishga
haqimiz bor.» 25 O‘sha odamlarga ayt: «Egamiz Rabbiy shunday demoqda: sizlar qoni
chiqarilmagan go‘shtni tanovul qilasizlar*, butlarga sig‘inib, qotillikka qo‘l urasizlar.
Shunday ekan, bu yurtga egalik qilishga nima haqingiz bor?! 26 Sizlar faqat o‘z
qilichingizga ishonyapsizlar! Jirkanch ishlar qilyapsizlar. Har biringiz qo‘shningizning
xotinini bulg‘ayapsizlar! Bu yurtga egalik qilishga nima haqingiz bor?!» 27 Ularga ayt:
«Egamiz Rabbiy shunday demoqda: Men barhayot Xudo bo‘lganim haqi ont ichib
aytamanki, o‘sha xarob shaharlarda yashab yurgan odamlarning hammasi qilichdan
halok bo‘ladilar. Bepoyon dalalarda bo‘lganlarni yovvoyi hayvonlar g‘ajib tashlaydi.
Qal’alarda va g‘orlarda bo‘lganlar esa o‘latdan nobud bo‘ladilar. 28 Men butun yurtni
tashlandiq xarobazorga aylantiraman. Sizlarning mag‘rur qudratingizga chek qo‘yaman.
Isroil tog‘larida birorta tirik jon qolmaydi, u yerga odam oyoq bosmaydi. 29 Men sizlarni
qilgan jirkanch ishlaringiz uchun jazolab, yurtni tashlandiq xarobazorga
aylantirganimda, Egangiz Men ekanligimni bilib olasizlar.»

Hizqiyol voizligining natijasi

30 Ey inson, yurtdoshlaring shahar devorlari oldida hamda uy ostonalarida turib, seni
g‘iybat qilishyapti. Ular bir–birlariga: «Qani yuringlar, Egamizdan kelgan xabarni bir
eshitib ko‘raylik–chi!» deyishadi. 31 Ular oldingga to‘dalashib kelishadi. Gaplaringni
eshitib o‘tirishadi, lekin birontasi ham aytganlaringni qilmaydi. Ularning tilidan bol
tomadi, ammo dilida o‘z foydasini ko‘zlaydilar. 32 Ular uchun sen mohir bir sozanda,
muhabbat haqida kuylagan xushovoz bir xonanda kabisan, xolos. Ular aytganlaringni
eshitishadi–yu, ammo gapingga kirishmaydi. 33 Men senga aytgan barcha kulfatlar
ularning boshiga tushadi. Shunda ular seni payg‘ambar deb tan olishadi.”

34–BOB

Isroil choʻponlari

1 Egamiz menga Oʻz soʻzini ayon qildi: 2 “Ey inson, Isroil choʻponlariga qarshi
bashorat qilib ayt: «Egamiz Rabbiy shunday demoqda: ey Isroil choʻponlari, sizning
holingizga voy! Sizlar qoʻylarni boqish oʻrniga oʻzingizni boqib yuribsizlar! 3 Eng semiz
qoʻylarni soʻyib, yogʻini yeysizlar. Jundan toʻqilgan kiyimlar kiyasizlar. Qoʻylarni esa
boqmaysizlar. 4 Nimjon qoʻylarga qaramaysizlar, kasallarni davolamaysizlar, yaralarini
bogʻlamaysizlar, adashganlarni olib kelmaysizlar, yoʻqolganlarni izlamaysizlar.
Aksincha, ularni qattiqqoʻllik bilan boshqarib, zulm oʻtkazasizlar. 5 Suruvning choʻponi
boʻlmagani uchun qoʻylarim har yoqqa tarqalib ketdi. Ular hamma yovvoyi hayvonlarga
oʻlja boʻldi. 6 Ha, qoʻylarim tarqalib ketdi. Ular togʻu tepaliklarda sandiroqlab yurdi.
Butun yer yuziga yoyilib ketdi, ularni hech kim izlamadi.

7 Ey choʻponlar, Mening soʻzimni eshitib qoʻyinglar. 8 Men, Egangiz Rabbiy, barhayot
Xudo boʻlganim haqi ont ichib aytaman: ana, choʻponsiz qolgan qoʻylarim oʻlja boʻldi.
Mening qoʻylarim hamma yovvoyi hayvonlarga yegulik boʻldi. Ey choʻponlarim, sizlar
qoʻylarimni qidirmadingiz. Qoʻylarimni boqmay, oʻzingizni boqdingiz. 9 Shuning uchun,
ey choʻponlar, Mening soʻzimni ikki qulogʻingiz bilan eshitib qoʻyinglar! 10 Men, Egangiz
Rabbiy, aytamanki, sizlarga qarshiman. Nobud boʻlgan qoʻylarimni sizlardan undirib
olaman. Sizlar suruvimni boshqa boqmaysizlar. Bundan buyon faqat oʻz qorinlaringizni
toʻygʻizib yurmaysizlar. Men qoʻylarimni sizning ogʻzingizdan tortib olaman, sizlar
qoʻylarimni yemaysizlar.

Yaxshi choʻpon

11 Egamiz Rabbiy shunday demoqda: ey choʻponlar, Men Oʻzim qoʻylarimni qidirib
topaman. 12 Adashgan suruvni qidirgan choʻponday qoʻylarimni izlayman. Bulutli,
qorongʻi kunda* har yoqqa tarqalib ketgan qoʻylarimni hamma joydan xalos qilib olib
kelaman. 13 Ularni begona oʻlkayu yurtlardan olib chiqib, ona zaminiga olib kelaman.
Isroil togʻlarida, soyliklarda va yurtning obod oʻlkalarida ularni boqaman. 14 Yaxshi
yaylovlarda oʻtlataman, Isroil togʻlari ularning yaylovi boʻladi. Ular oʻsha yerdagi
maysazorlarda yotib, Isroil togʻlarining koʻm–koʻk yaylovlarida oʻtlab yuradi. 15 Men
Oʻzim qoʻylarimga choʻpon boʻlaman. Ularga orom beraman, — deb aytmoqda Egamiz
Rabbiy. 16 — Yoʻqolgan qoʻylarimni izlab topaman, adashganlarini qaytarib olib
kelaman. Ularning yaralarini bogʻlab qoʻyaman, nimjon qoʻylarni parvarish qilaman.
Semiz, baquvvat qoʻylarni esa yoʻq qilaman. Men suruvimni adolat ila boqaman.

17 Ey suruvimdagi qoʻylar, sizlar haqingizda Men, Egangiz Rabbiy, aytamanki,
suruvimdagi qoʻylar orasida ajrim qilaman, qoʻchqor va taka orasida hukm chiqaraman.
18 Nega sizlar yaxshi oʻtdan yeb, ortganini payhon qilyapsizlar?! Tiniq suvdan ichib,
qonganingizdan keyin suvni loyqalatyapsizlar?! 19 Nima uchun qolgan qoʻylarim sizlar
payhon qilgan oʻtdan yeyishlari kerak?! Sizlar loyqalatgan suvdan ichishlari kerak?!»

20 Isroil xalqiga ayt: «Egamiz Rabbiy shunday demoqda: Men Oʻzim semiz va oriq
qoʻylarni ajrim qilaman. 21 Semiz qoʻylar oriq qoʻylarimni biqini va yelkasi bilan itarib,
shoxlari bilan suzdi. Ularni uzoqlarga tarqatib yubordi. 22 Lekin Men suruvimni qutqarib
olaman, ular endi oʻlja boʻlmaydilar. Men bir qoʻy bilan boshqa qoʻy orasida ajrim
qilaman. 23 Men qulim Dovudni choʻpon qilib tayinlayman. U suruvimni boqadi, ularga

choʻponlik qiladi. 24 Men ularning Xudosi boʻlaman, qulim Dovud esa ularning hukmdori boʻladi. Bularni Men, Egangiz, aytdim.

25 Ey Isroil xalqi! Sizlar mening suruvimsiz. Men sizlar bilan tinchlik ahdini tuzib, yurtdagi barcha yovvoyi hayvonlarni quvib chiqaraman. Shunda sizlar dashtu biyobonlarda osoyishta hayot kechirasizlar, oʻrmonlarda tinch uxlaysizlar. 26 Men sizlarga baraka beraman. Muqaddas togʻim* atrofida yashashingizga yoʻl qoʻyaman. Sizlarga yomgʻirni oʻz mavsumida baraka qilib yogʻdiraman. 27 Bogʻ–rogʻlardagi daraxtlar meva beradi, yer moʻl hosil yetishtiradi. Sizlar oʻz zaminingizda har qanday xavf–xatardan xoli boʻlasiz. Men sizlarni qul qilib olgan zolimlarning qoʻlidan xalos qilaman, boʻyinturugʻini sindiraman. Oʻshanda sizlar Egangiz Men ekanligimni bilib olasiz. 28 Bundan buyon oʻzga xalqlar sizlarni talamaydi, yurtdagi yovvoyi hayvonlar sizlarni gʻajimaydi. Sizlar osoyishta hayot kechirasiz, hech kim sizlarga tahdid solmaydi. 29 Ocharchilikdan nobud boʻlmasligingiz uchun Men sizlarga serunum yerlarni beraman. Oʻzga xalqlar sizlarni haqorat qilmaydigan boʻladilar. 30 Ey Isroil xalqi! Shunda Men sizlar bilan birga ekanligimni bilib olasizlar. Mening xalqim ekanligingizni sizlar anglab yetasizlar. Zotan, Men Isroil xalqining Egasi Xudoman! — deb aytmoqda Egamiz Rabbiy. 31 — Ey Isroil xalqi, sizlar Mening suruvim, yaylovimdagi qoʻylarimsizlar, Men esa sizning Xudoyingizman. Egamiz Rabbiyning kalomi shudir.»”

35–BOB

Xudo Edomni jazolaydi

1 Egamiz menga Oʻz soʻzini ayon qildi: 2 “Ey inson, Seir togʻlariga* yuzlan, ularga qarshi bashorat qilib ayt: 3 «Egamiz Rabbiy shunday demoqda: ey Seir togʻlari, Men sizlarga qarshiman. Men sizlarga qarshi qoʻlimni koʻtarib, sizlarni tashlandiq xarobazor qilaman. 4 Shaharlaringizni vayron qilib, yurtingizni tashlandiq joyga aylantiraman. Oʻshanda Egangiz Men ekanligimni bilib olasizlar. 5 Xalqimga boʻlgan qadimgi adovatingiz tufayli sizlar Isroil xalqining taqdirini qilich bilan hal qilgan edingizlar. Ular shusiz ham oxirgi jazosini tortib, boshlaridan ogʻir damlarni kechirayotgan edilar–ku! 6 Shu qilganlaringiz uchun, Men, Egangiz Rabbiy, barhayot Xudo boʻlganim haqi ont ichib aytamanki, sizlarni qonga belayman, qon ketingizdan quvadi. Sizlar qotillikdan hazar qilmaganingiz uchun qotillik sizlarni doim ta’qib qiladi. 7 Ey Seir togʻlari, Men sizlarni xarob qilib, tashlandiq joyga aylantiraman. Hududingizdan hech kim yurmaydigan boʻladi. 8 Men sizlarni jasadlarga toʻldiraman. Qilichdan halok boʻlgan odamlarning jasadlari qirlaringizda, vodiylaringizda, soyliklaringizda yotadi. 9 Sizlarni to abad tashlandiq qilaman. Shaharlaringizda hech qachon odam yashamaydi. Oʻshanda Egangiz Men ekanligimni bilib olasizlar.

10 Men, Egangiz, Yahudo va Isroil yurtida boʻlganimga qaramay, sizlar shunday deb aytgan edingiz: ‘Bu ikki xalq bizniki boʻladi, ularning yurtini biz qoʻlga kiritamiz.’ 11 Shunday ekan, Men, Egangiz Rabbiy, barhayot Xudo boʻlganim haqi ont ichib aytamanki, sizlarni qilgan qilmishlaringizga yarasha jazolayman. Sizlar xalqimdan nafratlanib, ularga hasad qilganingiz hamda ustilariga gʻazabingizni sochganingiz uchun adabingizni beraman. Men sizlarni jazolaganimda Oʻzimni xalqimga tanitaman. 12 Sizlar Isroil togʻlariga qarata aytgan haqoratli soʻzlaringizni Men, Egangiz, eshitganimni bilib olasizlar. Sizlar shunday degan edingiz: ‘Isroil xarob boʻldi, endi bu xalq bizga yem

bo‘ladi.’ 13 Ha, sizlar Mening oldimda o‘zingizni katta tutdingizlar. Og‘zingizni ko‘pirtirib,
Menga qarshi gapirdingizlar. Men hammasini eshitdim.
14 Egamiz Rabbiy shunday demoqda: Men sizlarni xarob qilganimda, butun jahon
sevinadi. 15 Axir, sizlar Isroil yurti xarob bo‘lganidan sevingan edingizlar. Shuning uchun
Men bu ko‘rgilikni boshlaringizga solaman. Ey Seir tog‘lari, ey butun Edom yurti, sizlar
xarob bo‘lasiz. Shunda Egangiz Men ekanligimni butun jahon bilib oladi.»”

36–BOB

Isroil tog‘lari haqida bashorat

1 Egamiz menga dedi: “Ey inson, Isroil tog‘lari haqida shunday bashorat qil: «Ey Isroil
tog‘lari, Egamizning so‘zini eshiting. 2 Egamiz Rabbiy shunday demoqda: g‘animlaringiz
sizni mazax qilib: ‘Aha! Bu ko‘hna tepaliklar endi bizniki bo‘ldi’, deb aytgan edilar.»
3 Shuning uchun, ey inson, bashorat qilib ayt: «Egamiz Rabbiy shunday demoqda:
qo‘shni xalqlar sizlarga har yoqdan hamla qilib, sizlarni xonavayron qilganlari uchun,
sizlar ularning mulki bo‘ldingiz, odamlardan haqoratlar eshitib, xo‘rliklar ko‘rdingiz.
4 Ey Isroil tog‘lari, endi Mening so‘zimni eshiting! Men, Egangiz Rabbiy, tog‘laru qirlarga,
soyliklaru vodiylarga, xarobazorlaru huvullagan shaharlarga gapirmoqdaman. Axir, bu
shaharlar atrofdagi hamma xalqlarga o‘lja va kulgi bo‘ldi. 5 Men, Egangiz Rabbiy,
aytamanki, Isroil atrofida yashagan xalqlardan, xususan, Edom xalqidan qattiq
g‘azabdaman. Chunki ular nafrat tuyg‘usiga berilib, yaylovlarni talon–taroj qilish uchun
yurtimni qo‘lga kiritdilar. Shunda o‘zida yo‘q xursand bo‘ldilar.» 6 Ey inson, shu
sababdan Isroil yurti haqida bashorat qilib, tog‘laru qirlarga, soyliklaru vodiylarga ayt:
«Egamiz Rabbiy shunday demoqda: qo‘shni xalqlar sizlarni qanchalik xo‘rlaganini
ko‘rib, g‘azabim keldi, rashkim qo‘zidi. 7 Shu sababdan Men, Egangiz Rabbiy, ont ichib
aytamanki, atrofingizdagi barcha xalqlarni xo‘rlamay qo‘ymayman.
8 Sizlar esa, ey Isroil tog‘lari, butoq chiqarasizlar. Xalqim Isroil uchun mo‘l hosil
yetishtirasizlar. Ha, ko‘p o‘tmay ular o‘z yurtiga qaytib keladilar. 9 Men sizlarga yuz
buraman, O‘zim sizlarga g‘amxo‘rlik qilaman. Yerlaringiz shudgor qilinadi, ekinlar
ekiladi. 10 Men Isroil aholisini ko‘paytiraman. Butun Isroil xonadonini son–sanoqsiz
qilaman. Huvullagan shaharlarga odamlar ko‘chib keladi, vayronalar qayta tiklanadi.
11 Nafaqat odamlarning, balki mol–qo‘ylarning ham soni behad ko‘payadi. Ular ko‘payib,
barakali bo‘ladi. Yurtingiz ilgarigiday odamlarga to‘lib–toshadi. Men sizlarni oldingidan
ham a’loroq hayotga erishtiraman. O‘shanda Egangiz Men ekanligimni bilib olasizlar.
12 Men xalqim Isroilni oldingizga yetaklab kelaman. Ular yerlaringizga egalik qiladilar,
sizlar xalqimning mulki bo‘lasizlar. Xalqimning farzandlarini boshqa nobud
qilmaysizlar.
13 Egamiz Rabbiy shunday demoqda: ey Isroil tog‘lari, odamlar sizlar haqingizda
shunday gapirishadi: ‘Isroil yurti o‘z odamlarini nobud qiladi, o‘z xalqini farzandlaridan
judo qiladi.’* 14 Ammo endi sizlar odamlarni nobud qilmaysizlar, xalqingizni
farzandlaridan judo qilmaysizlar, — deb aytmoqda Egamiz Rabbiy. 15 — Begona xalqlar
sizlarni haqorat qilishlariga va ustingizdan kulishlariga Men yo‘l qo‘ymayman. Bundan
buyon xalqimning qoqilishiga sizlar sabab bo‘lmaysiz. Egamiz Rabbiyning kalomi
shudir.»”

Isroil xalqining yangi hayoti

16 Egamiz menga O‘z so‘zini ayon qildi: 17 “Ey inson, Isroil xalqi ona yurtida yashab
yurgan paytida yerni yaramas qilmishlari bilan bulg‘agan edi. Ularning bunday
qilmishlari Mening nazarimda hayz ko‘rgan ayolday nopok edi*. 18 Ular yurtda qon
to‘kkanlari uchun, butlarga sig‘inib zaminni bulg‘aganlari uchun, Men ularning ustiga
g‘azabimni sochgan edim. 19 Ularni xalqlar orasiga tarqatib tashlagan edim, boshqa
yurtlarga quvib yuborgan edim. Men ularni tutgan yo‘llari va qilgan qilmishlariga
yarasha jazolagan edim. 20 Biroq ular borgan joylarida Meni badnom qilishdi. Ularni
ko‘rgan odamlar: «Bu Xudoning xalqi–ku! Ular Egasining yurtidan chiqib ketishga
majbur bo‘libdi–da!» deb aytishar edi. 21 Ha, Isroil xalqi borgan joyida Meni badnom
qildi. Bulg‘angan muqaddas nomim uchun Men qayg‘urdim.

22 Shunday ekan, Isroil xalqiga ayt: «Egamiz Rabbiy shunday demoqda: Men sizlarni
yurtingizga qaytarib olib kelaman. Lekin buni sizlar uchun emas, balki xalqlar orasida
sizlar bulg‘agan O‘z nomim uchun qilaman. 23 Sizlar bulg‘agan Mening buyuk nomim
qanchalik muqaddas ekanligini Men barcha xalqlarga ko‘rsataman. O‘shanda Egasi Men
ekanligimni ular bilib oladilar. Men sizlar orqali O‘z muqaddasligimni ularga ayon
qilaman. Egamiz Rabbiyning kalomi shudir.

24 Axir, sizlarni barcha xalqlar orasidan, hamma yurtlardan yig‘ib olaman. O‘z
yurtingizga olib borib o‘rnashtiraman. 25 Ustingizga toza suvdan sepib, sizlarni
poklayman. Barcha nopokliklaru butlaringizdan tozalayman. 26 Sizlarga yangi yurak
berib, qalbingizni yangi ruhga to‘ldiraman. Bag‘ringizdagi tosh yurakning o‘rniga
yumshoq yurak beraman. 27 Ichingizga O‘z Ruhimni solaman. Sizlar farmonlarimga rioya
qiladigan, qonun–qoidalarimni bitta qoldirmay bajaradigan bo‘lasizlar. 28 Shunda Men
ota–bobolaringizga bergan bu yurtda yashaysizlar. Sizlar Mening xalqim bo‘lasiz, Men
esa sizning Xudoyingiz bo‘laman. 29 Men sizlarni barcha nopokliklardan xalos qilaman.
G‘alla hosilini mo‘l yetishtirib, ocharchilikka chek qo‘yaman. 30 Ovqat tanqisligidan
xalqlar orasida xor bo‘lmasligingiz uchun bog‘laru dalalaringizga mo‘l hosil beraman.
31 Shunda sizlar yovuz yo‘llaringizni, qabih qilmishlaringizni eslaysizlar, qilgan
gunohlaringiz va jirkanch odatlaringiz uchun o‘zingizdan nafratlanib ketasizlar. 32 Ey
Isroil xalqi, bilib qo‘yinglar, Men sizlarga qilmoqchi bo‘lgan bu yaxshiliklarga loyiq
emassiz, biroq shu orqali Men sizlarni uyaltiraman. Qilgan qilmishlaringizdan
pushaymon bo‘lasiz. Egamiz Rabbiyning kalomi shudir.»

33 Ey inson, ularga ayt: «Egamiz Rabbiy shunday demoqda: Men sizlarni gunohlardan
poklaganimda, odamlarni olib kelib, shaharlaringizga o‘rnashtiraman. Vayrona bo‘lib
yotgan xarobalaringiz tiklanadi. 34 Qachonlardir sayyohlar kezib yurgan tashlandiq,
qarovsiz yerlarga qayta ishlov beriladi. 35 Ular bu yerlarni ko‘rganda shunday deb
aytishadi: ‘Voajabo! Tashlandiq bo‘lib yotgan bu yerlar Adan bog‘iday yashnab ketibdi–
ku! Huvullab yotgan xarob shaharlar mustahkam devorlar bilan o‘ralib, obod bo‘libdi–
ku!’ 36 Shunda atrofdagi omon qolgan xalqlar xarob shaharlarni Men, Egangiz, qayta
qurganimni, yalang maydonlarga Men ekin ekkanimni bilib olishadi. Men, Egangiz,
aytgan bu so‘zlarimni albatta amalga oshiraman.»”

37 Egamiz Rabbiy shunday demoqda: “Men xalqim Isroilning iltijolariga quloq tutib,
ularni qo‘ylarday son–sanoqsiz qilaman. 38 Bayram arafasida Quddus ko‘chalari
qurbonlik qilinadigan qo‘ylar bilan to‘lib–toshganiday, hozir vayron bo‘lib yotgan
shaharlar ham odamlar bilan to‘lib–toshadi. O‘shanda Isroil xalqi Egasi Men ekanligimni

bilib oladi.”

37–BOB

Qurigan suyaklar vodiysi

1 Egamizning qudrati meni qamrab oldi. Egamizning Ruhi meni koʻtarib, vodiyning oʻrtasiga qoʻydi. Vodiy suyaklarga toʻla edi. 2 Ruh meni vodiydagi bir dunyo suyaklar
orasida aylantirib yurdi. Suyaklar qurib ketgan edi. 3 Ruh menga:
— Ey inson, bu suyaklar tirilishi mumkinmi? — deb savol berdi.
— Yo Egam Rabbiy, bunisi yolgʻiz Oʻzingga ayon, — deb javob berdim men.
4 Soʻng U menga shunday dedi:
— Suyaklarga bashorat qilib ayt: “Ey qurigan suyaklar, Egamizning soʻzini eshiting!
5 Egam Rabbiy sizlarga shunday demoqda: Men sizlarga nafas* beraman, sizlar
tirilasizlar. 6 Ustingizni payu mushaklar bilan qoplab, teri tortaman, sizlarga hayot
nafasini puflab, sizlarni tiriltiraman. Oʻshanda Egangiz Men ekanligimni bilib olasizlar.”
7 Egamiz menga amr qilganiday, men Uning bu soʻzlarini bashorat qilib aytdim.
Bashorat qilayotganimda birdaniga qulogʻimga taraq–turuq ovozlar chalindi, suyaklar
birlasha boshladi. 8 Qarasam, suyaklar payu mushaklar bilan qoplandi, soʻng ustilariga
teri tortildi. Biroq tanalarda hanuz nafas yoʻq edi. 9 Egamiz menga shunday dedi:
— Endi shamolga* shunday buyruq ber: “Ey shamol, Egamiz Rabbiy aytmoqda: har
tomondan esib, bu oʻlik tanalarga hayot nafasini pufla, ularni tiriltir.”
10 Men Egamizning aytganini qildim. Shamol tanalarning ichiga kirib, odamlarni
tiriltirdi. Ular turganlarida buyuk bir olomonni tashkil qilishdi.
11 Keyin Egamiz menga shunday dedi:
— Ey inson, butun Isroil xalqi mana shu suyaklarga oʻxshaydi. Ular: “Suyaklarimiz
qurib ketdi, kelajakdan hech qanday umid yoʻq”, deb nola qilishadi. 12 Shuning uchun
xalqimga bashorat qilib ayt: “Egamiz Rabbiy shunday demoqda: «Ey xalqim Isroil, Men
qabrlaringizni* ochib, sizlarni u yerdan chiqaraman. Soʻng sizlarni oʻz yurtingiz —
Isroilga qaytarib olib boraman. 13 Oʻshanda sizlar Egangiz Men ekanligimni bilib
olasizlar. 14 Mening Ruhim* sizlarga hayot nafasini puflab, sizlarni tiriltiradi. Men
sizlarni ona yurtingizga olib borib, u yerda oʻrnashtiraman. Oʻshanda Men, Egangiz,
aytgan gaplarimni amalga oshirganimni sizlar bilib olasizlar.» Egamizning kalomi
shudir.”

Yahudo bilan Isroil bir shohlik boʻladi

15 Egamiz menga Oʻz soʻzini ayon qildi: 16 “Ey inson, bir tayoq olib, uning ustiga
«Yahudo shohligi»* deb yoz. Soʻng boshqa bir tayoq olib, uning ustiga «Isroil shohligi»*
deb yoz. 17 Keyin ikkala tayoqning uchlarini bir qoʻlingda shunday qilib ushlaginki, ular
bir tayoqday boʻlib koʻrinsin. 18 Odamlar sendan: «Bu bilan bizga nima demoqchisan?»
deb soʻraganlarida, 19 ularga shunday deb javob ber: «Egamiz Rabbiy demoqda: Men
Isroil shohligini bildiruvchi tayoqni* olaman. Uni Yahudo shohligining tayogʻi bilan
birlashtiraman. Ikkala tayoqni bitta qilib, qoʻlimda ushlayman.»
20 Qoʻlingdagi tayoqlarni hamma koʻradigan boʻlsin, 21 soʻng xalqqa ayt: «Egamiz
Rabbiy shunday demoqda: Men har yoqqa tarqalib ketgan xalqimni oʻzga xalqlar
orasidan yigʻib olaman. Ularni oʻz yurtlariga olib kelaman. 22 Ularni oʻsha yurtda yagona
bir xalq qilaman. Ha, Isroil togʻlarida ulardan yagona davlat yarataman. Ustilaridan bir

shoh tayinlayman, ular hech qachon ikki shohlikka ajralmaydilar. 23 Butlar va makruh
xudolar tufayli o‘zlarini bulg‘amaydilar, gunohdan o‘zlarini pok saqlaydilar. Men ularni
sadoqatsizlik aybidan xalos etaman*. Dillarini poklab tozalayman. Shunda ular Mening
xalqim bo‘ladi, Men esa ularning Xudosi bo‘laman.
24 Qulim Dovud ularning shohi bo‘ladi. Ha, hammasini bir cho‘pon boshqaradi. Ular
qonun–qoidalarimga rioya qilib, farmonlarimni bitta qoldirmay bajarishadi. 25 Men
qulim Yoqubga bergan yerda ular yashaydilar, ajdodlari o‘tgan yurtda istiqomat
qiladilar. Bola–chaqalari va butun avlodi o‘sha yurtda abadiy o‘rnashadi. Qulim
Dovudning sulolasi ularga to abad hukmronlik qiladi. 26 Men ular bilan tinchlik ahdini
tuzaman. Bu mangu bir ahd bo‘ladi. Men ularga baraka beraman, ko‘paytiraman.
Ma’badimni ularning orasida abadiy o‘rnashtiraman. 27 Ular orasida maskan quraman,
Men ularning Xudosi, ular esa Mening xalqim bo‘ladilar. 28 Men maskanimni ular orasida
abadiy o‘rnashtirganimda, Isroil xalqini muqaddas qiladigan Egasi Men ekanligimni
xalqlar bilib oladilar.»”

38–BOB

Hukmdor Go‘g Isroilga hujum qiladi

1 Egamiz menga O‘z so‘zini ayon qildi: 2 “Ey inson, Mago‘g yurtidagi Meshex va Tuval*
xalqlarining bosh hukmdori* Go‘gga yuzlan. Unga qarshi bashorat qilib 3 ayt: «Egamiz
Rabbiy shunday demoqda: ey Meshex va Tuval xalqlarining bosh hukmdori Go‘g, Men
senga qarshiman! 4 Men seni orqaga qaytaraman, jag‘laringga ilmoqlar solaman. Seni va
butun lashkaringni, otlaru otliqlaringni, tish–tirnog‘igacha qurollangan askarlaringni,
ulkan bir olomonni, katta va kichik qalqon ushlab, qilich o‘ynatgan jangchilaringni
sudrab chiqaraman. 5 Sening safingga Forslar, Habashistonliklar va Liviyaliklarning*
qurollangan jangchilari qo‘shiladi. 6 Go‘mer xalqining* va shimoldagi To‘xarmo
yurtining* barcha lashkari senga ergashadi. Sening lashkarlaring nihoyatda ko‘pdir.
7 Qani, tayyorlan! Atrofingdagi lashkarlarni jangga shay qil! Sen ularni boshlab
borasan. 8 Yillar o‘tib, jangga otlanasan. Urushdan keyin o‘zini tiklab olgan bir yurtga sen
bostirib borasan. Uzoq vaqt davomida tashlandiq bo‘lib yotgan bu yurtga, turli
xalqlardan Isroil tog‘lariga kelib o‘rnashgan odamlarga hujum qilasan. Ularning
hammasi osoyishta turmush kechirayotgan bo‘ladi. 9 Ammo sen dovuldek ularga
yopirilasan. Sen, lashkaring va senga ergashib kelgan ko‘p xalqlar yurtni bulut kabi
qoplab olasizlar.
10 Egamiz Rabbiy shunday demoqda: ey Go‘g, o‘sha kuni sen yomon xayollarga
berilasan, yovuz rejalar tuza boshlaysan. 11 Sen shunday aytasan: ‘Men devor bilan
o‘ralmagan qishloqlarga bostirib boraman. Xotirjam yashayotgan odamlarga hujum
qilaman. Ularning na devorlari bor, na darvozasi, na tambasi bor.’ 12 Sen xarob
shaharlarni tiklagan odamlarni talon–taroj qilasan. Bu odamlar turli xalqlardan
yig‘ilgan, chorva ko‘paytirib, dunyo orttirgan, jahon chorrahasida* joylashib olishgan.
13 Shunda Shava va Dedon* xalqlari hamda Tarshish* savdogarlariyu zodagonlari*
sendan so‘raydilar: ‘Sen hali o‘lja olgani keldingmi? Talon–taroj qilgani, oltinu kumush
olib ketgani, chorvayu boylikni tortib olgani, qo‘lga behad o‘lja kiritgani bir to‘da qo‘shin
tortib keldingmi?’»
14 Ey inson, Go‘gga bashorat qilib ayt: «Egamiz Rabbiy shunday demoqda: sen xalqim

Isroilning xotirjam yashaganini koʻrib, 15 shimoldagi olis yurtingdan koʻp xalqlarni
ergashtirib kelasan. Ha, bu cheksiz otliq lashkarni, bir toʻda buyuk qoʻshinni tortib
kelasan. 16 Yer yuzini qoplagan bulut kabi, xalqim Isroilni bosib olasan. Ey Goʻg,
kelajakda Men seni yurtimga hujum qilgani yuboraman. Sen orqali xalqlarga
muqaddasligimni ayon qilib, Oʻzimni tanitaman.

Xudo Goʻgni jazolaydi

17 Egamiz Rabbiy shunday demoqda: Oʻz qullarim — paygʻambarlarim orqali Men
xalqimni ogohlantirib kelganman. Kelajakda ularga qarshi bir dushman yuborishimni
oldindan aytganman. Ey Goʻg, oʻsha dushman sensan. 18 Isroil yurtiga hujum qilgan
kuning, Men gʻazabga minib olaman! — deb aytmoqda Egamiz Rabbiy. 19 — Rashku
gʻazabda eʼlon qilamanki, oʻsha kuni Isroil yurtida dahshatli zilzila boʻladi. 20 Yer
yuzidagi barcha jonzot — dengizdagi baliqlaru koʻkdagi qushlar, yovvoyi hayvonlaru
sudraluvchilar, hamma odamlar Mening huzurimda titraydi. Togʻlar agʻdarilib tushadi,
qoyalar parchalanib ketadi, hamma devorlar oʻpirilib tushadi. 21 Men hamma Isroil
togʻlarida senga qarshi qilich hozirlayman, — deb aytmoqda Egamiz Rabbiy. —
Lashkarlaring bir–biriga hamla qiladi. 22 Men oʻlatu qotilliklar orqali seni jazolayman.
Sening, lashkaringning, senga ergashib kelgan koʻp xalqlarning ustiga olovli oltingugurt,
jala va doʻl yogʻdiraman. 23 Dunyodagi koʻplab xalqlarga Oʻzimning ulugʻvorligim va
muqaddasligimni namoyon qilaman, ularga Oʻzimni tanitaman. Oʻshanda barcha
xalqlarning Egasi Men ekanligimni ular bilib oladilar.»”

39–BOB

Goʻgning magʻlubiyati

1 Egamiz menga dedi: “Ey inson, Goʻgga qarshi bashorat qilib ayt: «Egamiz Rabbiy
shunday demoqda: ey Meshex va Tuvalning bosh hukmdori* Goʻg, Men senga
qarshiman! 2 Men seni orqaga qaytarib, sudrab kelaman. Seni uzoq shimoldan olib
chiqib, Isroil togʻlariga olib kelaman. 3 Chap qoʻlingdagi yoying va oʻng qoʻlingdagi
oʻqlaringni urib tushiraman. 4 Sen Isroil togʻlarida jon berasan! Sening hamma
lashkarlaring va senga ergashib kelgan xalqlar u yerda halok boʻlishadi. Ularning
jasadlari turli yirtqich qushlarga va yovvoyi hayvonlarga oʻlja boʻladi. 5 Sen ochiq
maydonda oʻlasan. Buni Men aytdim. 6 Men Magoʻg ustiga va dengiz qirgʻogʻida osoyishta
hayot kechirayotgan barcha xalqlar ustiga olov yogʻdiraman. Oʻshanda barcha
xalqlarning Egasi Men ekanligimni ular bilib oladilar.»

7 Ey inson, Men Oʻz muqaddasligimni xalqim Isroilga ayon qilaman. Meni badnom
qilishlariga endi yoʻl qoʻymayman. Shunda barcha xalqlar Men, Isroil xalqining Xudosini
muqaddas deb biladilar, ularning Egasi Men ekanligimni bilib oladilar. 8 Men aytgan
oʻsha kun albatta keladi, — deb aytmoqda Egamiz Rabbiy. 9 — Shunda Isroil xalqi
shaharlardan chiqib, magʻlub boʻlgan yovning qurol–aslahalarini yigʻadi. Ular yigʻib
olgan kattayu kichik qalqonlarni, yoy va oʻqlarni, tayoq va nayzalarni yoqishadi. Yetti yil
davomida ularni oʻtin oʻrniga ishlatishadi. 10 Oʻtin yigʻish, oʻrmonda daraxt kesishga
ehtiyoj qolmaydi, chunki bu qurol–aslahalar xalqim uchun yoqilgʻi boʻladi. Shu tariqa
Isroil xalqi oʻz talonchilaridan oʻch oladi.” Egamiz Rabbiyning kalomi shudir.

Go‘g dafn qilinadi

11 Egamiz menga dedi: “Ey inson, bu hodisalar ro‘y bergan kuni Go‘g va uning to‘dasi
uchun Men bir qabriston hozirlayman. Bu qabriston O‘lik dengizning sharq tomonidagi
Sayyohlar vodiysida joylashgan bo‘ladi. U sayyohlarning yo‘lini to‘sib qo‘yadi. Shuning
uchun sayyohlar o‘sha vodiyning nomini o‘zgartirib, uni «Go‘g to‘dasining vodiysi» deb
ataydigan bo‘lishadi. 12 Isroil xalqi yetti oy mobaynida jasadlarni ko‘mib, o‘z yurtini
poklaydi. 13 Butun yurt aholisi jasadlarni ko‘madi. Shu qilganlari uchun Men
ulug‘vorligimni namoyon qilgan kunda ular yuksak obro‘ga erishadi, — deb aytmoqda
Egamiz Rabbiy. 14 — Yetti oy o‘tgach, yurtni poklaydigan maxsus odamlar tayinlanadi.
Ular yurtni kezib, ko‘milmay qolib ketgan jasadlarni ko‘madilar. 15 Ular yurtni kezib
yurganlarida topilgan har bir suyak oldiga belgi qo‘yadilar. Go‘rkovlar bu suyaklarni
yig‘ib olib, «Go‘g to‘dasining vodiysi»ga ko‘madilar. 16 Qabriston yonidagi shaharning
nomi ham To‘da bo‘ladi. Shunday qilib, ular yurtni poklaydilar.

17 Ey inson, turli xil qushlarni va hamma yovvoyi hayvonlarni yig‘ib, ularga shunday
deb ayt: «Egamiz Rabbiy demoqda: qani, kelinglar! Men sizlar uchun qurbonlik
hozirlayman, Isroil tog‘larida katta ziyofat uyushtiraman. Sizlar to‘yguningizcha
go‘shtdan yeb, qondan ichasizlar. 18 Bashan o‘lkasida semirtirilgan qo‘chqor, qo‘zichoq,
echki va buqalar bo‘g‘izlanganday, bahodir jangchilaru jahon hukmdorlari qurbon
qilinadi. Sizlar ularning tanalarini yeb, qonini ichasizlar. 19 Men sizlar uchun
uyushtiradigan bu ziyofatda sizlar to‘yguningizcha yog‘dan yeysizlar, mast
bo‘lguningizcha qondan ichasizlar. 20 Sizlar Mening dasturxonimdan xohlaganingizcha
ot va otliqlarning go‘shtidan, sipoh va turli xil jangchilarning go‘shtidan tanovul
qilasizlar. Egamiz Rabbiyning kalomi shudir.»

Isroil tiklanadi

21 Men O‘z ulug‘vorligimni xalqlar orasida namoyon qilaman. Xalqlarni jazolab,
ularga O‘z qudratimni ko‘rsataman. 22 O‘sha kundan boshlab, Isroil xalqi Egasi Xudo Men
ekanligimni biladi. 23 Isroil xalqi gunoh qilib, Menga xiyonat qilgani uchun, Men ularni
begona yurtlarga surgun qilganimni boshqa xalqlar tushunib olishadi. Xalqimning bu
qilmishi uchun Men ulardan yuz o‘girib, dushmanlarning qo‘liga topshirgan edim, qirilib
ketishlariga to‘sqinlik qilmadim. 24 Men ulardan yuz o‘girdim, buzuqligi va qilgan
gunohlariga yarasha jazosini berdim.”

25 Egamiz Rabbiy shunday demoqda: “Mana endi Men Yoqub naslini yana
farovonlikka erishtiraman*. Butun Isroil xalqiga shafqat ko‘rsataman. Obro‘yim
to‘kilishiga yo‘l qo‘ymayman! 26 Ular o‘z yurtiga qaytib kelganlaridan keyin o‘tmishdagi
sharmandagarchiligi va Menga qilgan xiyonatiga iqror bo‘ladilar. Ular tinch yashaydilar,
hech kim ularga tahdid qilmaydi. 27 Men ularni g‘animlarning yurtlaridan olib
chiqqanimda, xalqlar muqaddasligimni ko‘rishadi. 28 Egasi Xudo Men ekanligimni xalqim
bilib oladi. Garchi Men ularni o‘zga yurtlarga tarqatib yuborgan bo‘lsam–da, ularni ona
yurtiga qaytarib olib kelaman. Xalqimdan birontasi ham begona yurtda qolib ketmaydi.
29 Men xalqim Isroil ustiga O‘z Ruhimdan yog‘diraman, endi ulardan yuz o‘girmayman.”
Egamiz Rabbiyning kalomi shudir.

40–BOB

Ma’bad haqida vahiy

1 Surgun bo‘lgan paytimizning yigirma beshinchi yili birinchi oyining* o‘ninchi
kunida Quddus qulaganiga o‘n to‘rt yil bo‘lgan edi. O‘sha kuni Egamizning qudrati meni
qamrab olib, ko‘tarib ketdi. 2 Vahiyda Xudo meni Isroil yurtiga olib borib, juda baland bir
tog‘ning ustiga turg‘izib qo‘ydi. U yerdan men janub tomonda joylashgan shaharga
o‘xshash bir nechta binoni ko‘rdim. 3 Xudo meni o‘sha yerga yaqinroq olib borganda,
men darvoza yonida turgan bir odamni ko‘rib qoldim. O‘sha odamning butun vujudi
yarqiroq misday tovlanib turar edi. Uning qo‘lida o‘lchov asboblaridan zig‘ir arqon va
chizg‘ich bor edi. 4 U menga shunday dedi: “Ey inson, men senga ko‘rsatadigan hamma
narsaga yaxshilab e’tibor ber, sen shu sababdan bu yerga keltirilgansan. Yaxshilab quloq
sol, chunki sen ko‘rganlaringni Isroil xalqiga aytib berishing kerak.”

Sharqiy darvoza binosi

5 Men Ma’bad hovlisini o‘rab turgan bir devorni ko‘rdim. Darvoza yonida turgan
o‘sha odam chizg‘ichi bilan devorni o‘lchadi. Chizg‘ichining uzunligi olti uzun tirsak
bo‘lib, har bir uzun tirsak bir tirsagu to‘rt enli edi*. Devorning qalinligi olti tirsak,
balandligi ham olti tirsak chiqdi. 6 So‘ng u sharqiy darvoza binosining oldiga bordi.
Zinalardan tepaga ko‘tarilib, ostonani o‘lchadi. Ostona ikki yon devorining qalinligi olti
tirsak chiqdi. 7 Ostonadan yo‘lak boshlanar edi. Yo‘lakning ikki tomonida soqchilar
uchun maxsus qurilgan uchtadan xona bor edi. Xonalarning eni va uzunligi bir xil — olti
tirsakdan edi. Xonalarni ajratib turgan devorlarning qalinligi esa besh tirsak edi.
Yo‘lakning oxirida dahliz ostonasi bor edi. Dahliz ostonasining ikki yon devori olti tirsak
qalinlikda edi. 8 So‘ng o‘sha odam dahlizni o‘lchadi. 9 Dahlizning eni sakkiz tirsak edi.
Dahliz eshigining ikki yon devorlari ikki tirsak qalinlikda edi. Bu dahliz darvoza
binosining ichki tarafida, Ma’badning ro‘parasida joylashgan edi. 10 Yo‘lakning ikki
tomonidagi o‘sha soqchilar xonalari bir xil kattalikda, orasidagi devorlar ham bir xil
qalinlikda edi. 11 So‘ng o‘sha odam darvoza binosining ostonasini o‘lchadi. Ostonaning
eni o‘n tirsak chiqdi. Yo‘lakning eni esa o‘n uch tirsak chiqdi. 12 Har bir xonaning oldida
balandligi va eni bir tirsak bo‘lgan pastak devor bor edi. (Xonalarning uzunligi va eni olti
tirsakdan edi.) 13 So‘ngra o‘sha odam darvoza binosining shiftini ko‘ndalangiga, bir
xonaning orqa devoridan tortib, ro‘paradagi xonaning orqa devorigacha o‘lchadi.
Shiftning eni 25 tirsak chiqdi. 14 Keyin u dahliz eshigining ikki yon devorini o‘lchadi.
Devorning balandligi 60 tirsak chiqdi. Darvoza binosining atrofi hovli edi. 15 Darvoza
binosining uzunligi, darvozadan tortib, to ichkaridagi dahlizgacha 50 tirsak edi.
16 Xonalarning uchala devorida panjarali tuynuklar bor edi. Dahlizda ham panjarali
tuynuklar bor edi. Dahliz eshigi yon devorlariga palma daraxtining tasvirlari tushirilgan
edi.

Tashqi hovli

17 O‘sha odam meni darvoza orqali Ma’badning tashqi hovlisiga olib kirdi. Hovlining
devori bo‘ylab o‘ttizta hujra* qurilgan edi. Hujralarning old tomonida tosh yotqizilgan
bir yo‘l bor edi. 18 Bu yo‘l past yo‘l hisoblanar edi. Uning eni 50 tirsak edi. 19 So‘ng men
ichki hovliga olib kiradigan darvoza binosini ko‘rdim. O‘sha odam ichki darvoza binosi
bilan tashqi darvoza binosi orasidagi masofani o‘lchadi. Masofa 100 tirsak chiqdi.

Shimoliy darvoza binosi

20 So‘ng o‘sha odam tashqi hovlining shimoliy darvoza binosini o‘lchadi. 21 Bu
darvoza binosining ikki yon tomonidagi uchtadan bo‘lgan soqchilar xonalari, dahliz va
yon devorlarning o‘lchamlari sharqiy darvoza binosiniki bilan bir xil edi. Darvoza
binosining uzunligi 50 tirsak, eni 25 tirsak edi. 22 Devorlardagi panjarali tuynuklar,
dahliz va palma tasvirlarining o‘lchamlari sharqiy darvoza binosiniki bilan bir xil edi.
Darvozaga yetti pog‘onali zina olib borar edi. Dahliz darvoza binosining ichki tomonida
joylashgan edi. 23 Shimoliy darvoza binosining ro‘parasida ham sharqiy darvoza
binosidagiday ichki hovliga olib kiradigan darvoza binosi bor edi. O‘sha odam ichki
darvoza binosidan tashqi darvoza binosigacha bo‘lgan masofani o‘lchagan edi, masofa
100 uzun tirsak chiqdi.

Janubiy darvoza binosi

24 So‘ng o‘sha odam meni janub tomonga olib bordi. Janub tomonda ham darvoza
binosi bor edi. O‘sha odam darvoza binosining dahlizini va dahliz devorlarini o‘lchadi,
ularning o‘lchamlari boshqalarniki bilan bir xil edi. 25 Bu darvoza binosidagi xonalarning
va dahlizning boshqa darvozalarnikiga o‘xshagan panjarali tuynuklari bor edi. Darvoza
binosining uzunligi 50 tirsak, eni esa 25 tirsak edi. 26 Darvozaga yetti pog‘onali zina olib
borar edi. Dahliz darvoza binosining ichki tomonida joylashgan edi. Dahliz eshigining
ikki yon devoriga palma daraxtining tasvirlari tushirilgan edi. 27 Janub tomonda
Ma’badning ichki hovlisiga olib kiradigan darvoza binosi bor edi. O‘sha odam janubdagi
ichki darvoza binosidan tashqi darvoza binosigacha bo‘lgan masofani o‘lchadi, masofa
100 tirsak chiqdi.

Ichki hovli: janubiy darvoza binosi

28 So‘ng o‘sha odam meni janubiy darvoza orqali Ma’badning ichki hovlisiga olib
kirdi–da, darvoza binosini o‘lchadi. Darvoza binosining o‘lchamlari boshqa darvoza
binolariniki bilan bir xil edi. 29 Darvoza binosining xonalari, dahlizi va dahliz eshigining
ikki yon devori boshqa darvoza binolarinikiga o‘xshagan edi. Xonalarning va dahlizning
panjarali tuynuklari bor edi. Darvoza binosining uzunligi 50 tirsak, eni 25 tirsak edi.
30 Ichki hovliga qaratilgan darvoza binolarining dahlizlari bir xil edi. Ularning uzunligi
25 tirsak, eni 5 tirsak edi. 31 Dahliz orqali Ma’badning tashqi hovlisiga chiqilar edi. Dahliz
eshigining ikki yon devoriga palma daraxtining tasvirlari tushirilgan edi. Darvozaga
sakkiz pog‘onali zinapoya olib borar edi.

Ichki hovli: sharqiy darvoza binosi

32 So‘ng o‘sha odam meni sharqiy darvoza orqali Ma’badning ichki hovlisiga olib
kirdi–da, darvoza binosini o‘lchadi. Darvoza binosining o‘lchamlari boshqa darvoza
binolariniki bilan bir xil edi. 33 Darvoza binosining xonalari, dahlizi va dahliz eshigining
yon devorlari boshqa darvozalarnikiga o‘xshagan edi. Xonalarning va dahlizning
panjarali tuynuklari bor edi. Darvoza binosining uzunligi 50 tirsak, eni 25 tirsak edi.
34 Dahliz orqali Ma’badning tashqi hovlisiga chiqilar edi. Dahliz eshigining ikki yon
devoriga palma daraxtining tasvirlari tushirilgan edi. Darvoza binosiga sakkiz pog‘onali
zinapoya olib borar edi.

Ichki hovli: shimoliy darvoza binosi

35 So‘ng o‘sha odam meni shimoliy darvoza oldiga olib borib, darvoza binosini

o‘lchadi. Darvoza binosining o‘lchamlari boshqa darvoza binolariniki bilan bir xil edi.
36 Darvoza binosining xonalari, dahlizi va dahliz eshigining yon devorlari boshqa
darvoza binolarinikiga o‘xshagan edi. Xonalar va dahlizning panjarali tuynuklari bor edi.
Darvoza binosining uzunligi 50 tirsak, eni 25 tirsak edi. 37 Dahliz orqali Ma’badning
tashqi hovlisiga chiqilar edi. Dahliz eshigining ikki yon devoriga palma daraxtining
tasvirlari tushirilgan edi. Darvozaga sakkiz pog‘onali zinapoya olib borar edi.

Shimoliy darvoza binosi yonida qurilgan imoratlar

38 Shimol tomondagi ichki darvozaning dahlizi yonida bir xona bor edi. Bu xonaga
dahliz orqali kirilar edi. Qurbonlik uchun bo‘g‘izlangan hayvonlar shu xonada yuvilar
edi. 39 Dahlizning o‘zida to‘rtta xontaxta bor edi. Xontaxtaning ikkitasi dahlizning bir
chekkasida, qolgan ikkitasi dahlizning boshqa chekkasida turar edi. Bu xontaxtalarning
ustida kuydiriladigan qurbonlik, gunoh qurbonligi* va ayb qurbonligi* uchun hayvonlar
bo‘g‘izlanar edi. 40 Tashqi hovlida yana to‘rtta xontaxta bor edi. Xontaxtaning ikkitasi
darvoza zinapoyasining bir tomonida, boshqa ikkitasi zinapoyaning boshqa tomonida
turar edi. 41 Hammasi bo‘lib sakkizta xontaxta bor edi. To‘rtta xontaxta dahlizning
ichida, yana to‘rttasi darvozaning tashqarisida turar edi. Bu xontaxtalarning ustida
hayvonlar bo‘g‘izlanar edi. 42 Kuydiriladigan qurbonliklar uchun yana to‘rtta xontaxta
bor edi. Bu xontaxtalar yo‘nilgan toshdan yasalgan bo‘lib, ularning uzunligi va eni bir
yarim tirsak, bo‘yi bir tirsak edi. Bu xontaxtalar ustiga qurbonliklarni so‘yishda
ishlatiladigan asboblar qo‘yilar edi. 43 Dahliz devorlariga uzunligi to‘rt enli bo‘lgan
ilgaklar qoqilgan edi. Hayvonlarning go‘shti esa xontaxtalar ustiga qo‘yilar edi.

Ruhoniylarning xonalari

44 Ichki hovlida ikkita xona qurilgan edi*. Xonalarning bittasi shimoliy darvoza
yonida janub tomonga qaratib qurilgan edi. Ikkinchisi esa janubiy* darvoza yonida
shimol tomonga qaratib qurilgan edi. 45 O‘lchayotgan odam menga shunday dedi:
“Shimoliy darvoza yonidagi xona Ma’bad uchun mas’ul bo‘lgan ruhoniylarga mo‘ljallab
qurilgan. 46 Janubiy darvoza yonidagi xona esa qurbongoh yonida xizmat qiladigan
ruhoniylar uchun mo‘ljallab qurilgan. Hamma ruhoniylar Zodo‘x avlodidan edi. Levi
qabilasidan faqat Zodo‘x avlodlari Egamizning huzurida xizmat qilishga haqlidir.”

Ichki hovli va Ma’bad

47 So‘ng o‘sha odam ichki hovlini o‘lchadi. Hovli to‘rtburchak shaklda, uzunligi va eni
100 tirsakdan edi. Qurbongoh Ma’badning old tarafida edi.

48 Keyin u odam meni Ma’bad ayvoniga olib kirib, ayvon ostonasining yon
devorlarini o‘lchadi. Yon devorlarning qalinligi 5 tirsak chiqdi. Ostonaning eni 14 tirsak,
ostona yon devorlarining uzunligi 3 tirsak chiqdi*. 49 Ayvonning uzunligi 20 tirsak, eni
12 tirsak edi. Ayvonga o‘n pog‘onali zinapoya olib borar edi*. Ayvon ostonasining ikki
yon tomonida bittadan ustun bor edi.

41–BOB

Ma’bad binosi

1 Keyin o‘sha odam* meni Ma’badning asosiy xonasiga* olib kirdi. U asosiy xona
eshigining ikki yon devorini o‘lchadi. Yon devorlarning qalinligi 6 tirsak* chiqdi.
2 Ostonaning eni 10 tirsak, ostona ikki yon devorlarining uzunligi 5 tirsakdan chiqdi.

So‘ngra o‘sha odam asosiy xonani o‘lchadi. Xonaning uzunligi 40 tirsak, eni 20 tirsak chiqdi. 3 Keyin u asosiy xonadan Ma’badning ichki xonasiga kirib, ichki xona eshigining yon devorlarini o‘lchadi. Yon devorlarning qalinligi 2 tirsak chiqdi. Ostonaning eni 6 tirsak, ostona ikki yon devorlarining uzunligi esa 7 tirsakdan chiqdi. 4 O‘sha odam ichki xonani ham o‘lchadi. Ichki xonaning uzunligi bilan eni bir xil — 20 tirsakdan chiqdi. U menga: “Bu Eng muqaddas xona”, deb tushuntirdi.

Ma’baddagi yon xonalar

5 So‘ng o‘sha odam Ma’bad devorini o‘lchadi. Devorning eni 6 tirsak chiqdi. Ma’badning tashqi devoriga taqab yon xonalar qurilgan edi. Xonalarning uzunligi 7 tirsak edi. 6 Xonalar uch qavat qilib qurilgan bo‘lib, har bir qavatda o‘ttiztadan xona bor edi. Ma’badning devorlari uch pog‘onali zina shaklida bo‘lib, xonalarga tayanch bo‘lib xizmat qilar edi. Shu sababdan Ma’bad devorlarining o‘zi butun edi. 7 Ma’bad devorining quyi qismi yuqori qismiga nisbatan qalinroq bo‘lgani uchun tepadagi xonalar kengroq edi. Zinapoya orqali pastki qavatdan ikkinchi qavatga, so‘ng uchinchi qavatga chiqilar edi. 8 Men Ma’bad atrofida balandligi 6 tirsak bo‘lgan poydevor borligini ham ko‘rdim. Yon xonalar mana shu poydevor ustiga qurilgan edi. 9 Yon xonalarning tashqi devori 5 tirsak qalinlikda edi. Yon xonalar va 10 ichki hovlining devori bo‘ylab qurilgan hujralar orasidagi masofa 20 tirsak edi. Ma’badning gir aylanasi hovli edi. 11 Yon xonalarga ikkita eshik orqali kirilar edi. Bir eshik shimol tomonda, boshqasi janub tomonda joylashgan edi. Yon xonalar tevaragida bo‘sh qolgan joyning eni 5 tirsak edi.

G‘arb tomondagi imorat

12 Ma’bad hovlisining g‘arb tomonida katta bir imorat bor edi. Imoratning eni 70 tirsak, uzunligi 90 tirsak, devorlarning qalinligi 5 tirsak edi.

Ma’bad majmuasining umumiy o‘lchamlari

13 O‘sha odam Ma’badning uzunligini o‘lchadi. Ma’badning uzunligi 100 tirsak chiqdi. So‘ng u Ma’badning orqa devoridan g‘arbdagi imoratning orqa devorigacha bo‘lgan masofani o‘lchadi, masofa 100 tirsak chiqdi. 14 Ma’badning old tomonidagi, ya’ni sharq tomondagi hovlining eni ham 100 tirsak chiqdi.

15 So‘ngra u odam hovlining g‘arbida joylashgan imoratning uzunligini o‘lchadi. Imorat va uning ikki yon tomonidagi xonalarning uzunligi 100 tirsak chiqdi.

Ma’badning ikir–chikirlari

Ma’badning ayvoni, asosiy xonasi va ichki xonasi 16 yerdan derazalargacha yog‘och bilan qoplangan edi. Ma’badning ostonalari, panjarali derazalari va yon xonalari yog‘och bilan pardoz qilingan edi. 17 Ma’badning ichkaridagi hamma devorlariga, eshiklarning tepalarigacha o‘yma naqshlar solingandi. 18 Hamma devorlarga karublarning suratlari o‘yilgan edi. Karublarning orasiga palma daraxtining suratlari ham o‘yilgandi. Har bir karubning ikkitadan yuzi bor edi. 19 Karubning inson yuziga o‘xshagan yuzi bir tomondagi palma daraxtiga, sher yuziga o‘xshagan boshqa bir yuzi boshqa tomondagi palma daraxtiga qaratilgan edi. Bunday suratlar Ma’badning ichki devorining gir aylanasiga, 20 yerdan eshiklar ustidagi devorlargacha o‘yilgan edi. 21 Asosiy xona eshigining kesakisi* to‘rtburchak shaklida yasalgan edi.

Yog‘och qurbongoh

Eng muqaddas xonaning ro‘parasida 22 qurbongohga o‘xshash bir narsa bor edi.

Uning bo‘yi 3 tirsak, uzunligi va eni 2 tirsak edi. Burchaklari, asosi va yon tomonlari yog‘ochdan yasalgan edi. O‘sha odam menga shunday dedi: “Bu Egamiz huzurida turadigan xontaxtadir.”

Eshiklar

23 Asosiy xonaning va Eng muqaddas xonaning* eshiklari bor edi. 24 Eshiklarning har biri ikki tavaqali, yig‘ma edi. 25 Asosiy xona eshiklarining yuzasiga devordagiday karublar va palma daraxtlarining suratlari o‘yilgan edi. Ma’bad ayvonining oldi tomoniga yog‘och bostirma qurilgan edi. 26 Ayvon yon devorlarining panjarali derazalari bor edi. Devorlarga palma daraxtining suratlari o‘yilgan edi. Ma’baddagi yon xonalarning kiraverishiga yog‘och bostirmalar qurilgandi.

42–BOB

Ruhoniylarning muqaddas xonalari

1 So‘ng o‘sha odam* meni tashqi hovliga olib chiqib, Ma’badning shimolidagi bir qator xonalar oldiga olib bordi. Bu xonalar Ma’badning g‘arb tomonidagi imoratga yaqin joylashgan edi. 2 Ularning shimol tomonidagi umumiy uzunligi 100 tirsak*, eni 50 tirsak edi. 3 Xonalar bir tomoni bilan eni 20 tirsak bo‘lgan ichki hovlining ochiq joyiga*, ikkinchi tomoni bilan Ma’badning tosh yotqizilgan tashqi hovlisiga* qarab turardi. Xonalar uch qavat qilib qurilgan edi. 4 Xonalarning ichki hovli tomonida bir keng yo‘lak bor edi. Bu yo‘lakning eni 10 tirsak, uzunligi 100 tirsak* edi. Ammo xonalarning eshiklari shimol tomonga ochilar edi. 5 Uchinchi qavatdagi xonalar, ikkinchi qavatdagilarga, ikkinchi qavatdagi xonalar esa birinchi qavatdagilarga qaraganda torroq edi. Shuning hisobiga yuqori qavatdagi ayvonlar kengroq edi. 6 Quyi qavatdagi xonalar yuqori qavatdagi xonalarga tayanch bo‘lib xizmat qilar edi. Shu sababdan bu inshoot qurilmasida Ma’bad hovlisidagi boshqa binolardan farqli ravishda ustunlardan foydalanilmagan. 7 Bu xonalarni tashqi hovlidan devor ajratib turar edi. Uzunligi 50 tirsak bo‘lgan bu devor tashqi hovlidagi hujralarning davomiga qurilgan edi. 8 Tashqi hovlidagi hujralarning uzunligi 50 tirsak, ichki hovlidagi bu xonalarning uzunligi esa 100 tirsak edi. 9 Bu xonalarga tashqi hovlidan kirish uchun sharqdagi kiraverishdan foydalanilgan. 10 Bu kiraverish hovlining devori boshlangan joyda edi.

Janubda* ham ochiq joy va xonalar bor edi, bu xonalar imorat ro‘parasida edi. 11 Bu xonalarning old tomonida yo‘lakchasi bor edi. Xonalarning hajmi, eshiklari, tuzilishi va kirish joylari shimol tomondagi xonalarniki bilan bir xil edi. 12 Bu xonalarga sharq tomondan o‘sha yo‘lakcha orqali kirilar edi. Yo‘lakning bir tomoni devor edi.

13 U odam menga shunday dedi: “Ma’badning shimol va janub tomoniga qurilgan bu xonalar muqaddasdir. Bu xonalarda Egamizning huzuriga kiradigan ruhoniylar eng muqaddas nazrlarni tanovul qiladilar. Don nazri, gunoh qurbonliklari va ayb qurbonliklari bu xonalarga qo‘yiladi, chunki bu xonalar muqaddasdir. 14 Ruhoniylar Ma’badda xizmat qilib bo‘lganlaridan keyin, muqaddas liboslarini bu xonalarda yechib, boshqa kiyim kiyib olishlari kerak. Shundan keyingina tashqi hovliga — odamlarning oldiga chiqishlari mumkin.”

Ma’bad hududining o‘lchamlari

15 O‘sha odam Ma’bad hovlisidagi binolarni o‘lchab bo‘lgandan so‘ng, meni sharqiy

darvoza orqali tashqariga olib chiqib, Ma’bad hovlisining atrofidagi devorni o‘lchay boshladi. 16 U chizg‘ichi bilan devorning sharq tomonini o‘lchadi, devorning uzunligi 500 tirsak chiqdi. 17-19 So‘ng devorning shimol, janub va g‘arb tomonlarini o‘lchadi. Devorning hamma tomonlari 500 tirsak uzunlikda edi. 20 Ma’bad hududi to‘rtburchak shaklda edi. Bu devor muqaddas joyni oddiy joydan ajratib turar edi.

43–BOB

Egamiz Ma’badga qaytib keladi

1 O‘sha odam* meni sharqiy darvoza* oldiga olib bordi. 2 Birdaniga men sharq tomonda paydo bo‘lgan Isroil Xudosining ulug‘vorligini ko‘rdim. Xudoning ovozi shovullagan dengiz tovushiga o‘xshar edi. Uning ulug‘vorligidan zamin porlay boshladi. 3 Men ko‘rgan bu vahiy, Xudo Quddusni vayron qilish uchun kelganda va Kavor daryosi bo‘yida ko‘rgan vahiylarimga* o‘xshab ketar edi. Men muk tushdim. 4 Egamizning ulug‘vorligi sharqiy darvoza orqali Ma’badga kirdi. 5 So‘ng Ruh meni oyoqqa turg‘izib, ichki hovliga olib kirdi. Egamizning ulug‘vorligi Ma’badni to‘ldirdi.

6 Ma’badni o‘lchagan odam yonimda turganda, Ma’bad ichidan menga bir ovoz keldi. 7 O‘sha ovoz menga dedi: “Ey inson, bu joy Mening taxtimdir, oyog‘im ostidagi poyandozimdir. Men bu yerda, xalqim Isroil orasida abadiy yashayman. Ular va ularning shohlari endi Meni badnom qilishmaydi. Ular boshqa xudolarga ko‘ngil bog‘lashmaydi, o‘lgan shohlariga haykallar yasashmaydi. 8 Ular o‘z saroylarini muqaddas Ma’badimning yonginasiga qurishgan edi. Meni ulardan bittagina devor ajratib turar edi, xolos. Ular qilgan jirkanch ishlari bilan Meni badnom qilishdi. Shuning uchun Men g‘azablanib, ularni qirib tashladim. 9 Agar endi ular begona xudolardan voz kechib, shohlariga o‘rnatgan haykallarni yo‘q qilishsa, Men ularning orasida abadiy yashayman.

10 Ey inson, sen borib Isroil xalqiga Ma’badimni tasvirlab ber, ular Ma’badning loyihasi bilan tanishib chiqishsin. Qilgan gunohlaridan pushaymon bo‘lishsin. 11 Qilmishlaridan pushaymon bo‘lganlarida sen ularga Ma’badning loyihasini: uning joylashish tartibini, kirish–chiqishlarini, tuzilishini, qonun–qoidalarini batafsil tushuntirib ber. Loyihaning chizmasini ularning oldida chizib, barcha qonun–qoidalarini yozib qo‘y, toki hammasiga rioya qilishsin. 12 Tog‘ cho‘qqisidagi Ma’bad joylashgan hudud muqaddas saqlansin. Bu Ma’badning asosiy qoidasi bo‘lsin.

Ma’baddagi qurbongoh

13 Ma’baddagi qurbongohning o‘lchamlari uzun tirsak bo‘yicha bo‘lsin. Ya’ni har bir uzun tirsak bir tirsagu to‘rt enni tashkil qilib*, o‘lchamlari quyidagicha bo‘lsin: qurbongoh atrofidagi ariqchaning chuqurligi bir tirsak, eni ham bir tirsak, ariqcha chetining balandligi bir qarich. 14-17 Qurbongoh uch qismdan iborat bo‘lishi shart. Har bir qism to‘rtburchak shaklida bo‘lsin. Qurbongoh quyi qismining balandligi ariqchaning tubidan o‘lchaganda ikki tirsak, har bir tomonining uzunligi o‘n olti tirsak bo‘lsin. Ikkinchi qismining balandligi to‘rt tirsak, har bir tomonining uzunligi o‘n to‘rt tirsak bo‘lsin. Bu qismning aylanasiga tarnov qilinsin. Tarnovning eni yarim tirsak, tarnov chetining balandligi bir tirsak bo‘lsin. Qurbongohning yuqori qismida qurbonliklar kuydiriladi. Bu qismning balandligi to‘rt tirsak, har bir tomonining uzunligi o‘n ikki tirsak bo‘lsin. Uning to‘rtala burchagidan shoxlar chiqib tursin. Qurbongohga sharq tomondan, zinapoyalar orqali chiqiladigan bo‘lsin.”

Qurbongohni muqaddas qilish marosimi

18 So‘ng Egamiz menga dedi: “Ey inson, Men, Egangiz Rabbiy, aytamanki,
qurbonliklarni kuydirish va qon sepish uchun qurbongohni qurganingizdan keyin
quyidagi qoidalarga rioya qilinglar: 19 Mening huzurimda faqat Zodo‘x naslidan bo‘lgan
levi ruhoniylari xizmat qilishsin. Sen ularga gunoh qurbonligi uchun bir buqani ber, —
deb aytmoqda Egamiz Rabbiy. 20 — Sen o‘sha buqaning qonidan olib, qurbongohning
to‘rtta shoxiga, qurbongoh o‘rta qismining to‘rtala burchagiga va chetlarga surtib chiq.
Shu yo‘sin sen qurbongohni poklab, muqaddas qilasan. 21 Buqaning jasadini esa
Ma’baddan tashqariga, maxsus ajratilgan joyga olib chiqib kuydir.
22 Keyingi kuni gunoh qurbonligi sifatida nuqsonsiz takani keltir. Qurbongohni
buqaning qoni bilan qanday poklagan bo‘lsang, takaning qoni bilan ham xuddi shunday
pokla. 23 Qurbongohni poklaganingdan so‘ng, nuqsonsiz buqa va qo‘chqorni 24 Mening
huzurimga keltir. Ruhoniylar bu jonivorlarning ustiga tuz* sochib, ularni Menga atab
qurbonlik qilib kuydirishsin. 25 Har kuni, yetti kun davomida bir takani gunoh qurbonligi
qil. Bundan tashqari, bir buqa va bir qo‘chqorni qurbonlik uchun keltir. Jonivorlar
nuqsonsiz bo‘lishi shart. 26 O‘sha yetti kun davomida ruhoniylar qurbongohni poklab,
muqaddas qilishsin. Shunday qilib, uni Mening xizmatimga bag‘ishlasinlar. 27 Sakkizinchi
kundan boshlab, ular har kuni o‘sha qurbongohda tinchlik va kuydiriladigan
qurbonliklarini keltirishsin. Shunda Men sizlardan mamnun bo‘laman.” Egamiz
Rabbiyning kalomi shudir.

44–BOB

Sharqiy darvoza binosining vazifasi

1 O‘sha odam* meni Ma’badning sharq tomonidagi tashqi darvoza binosi yoniga olib
bordi. Biroq darvoza yopiq edi. 2 Egamiz menga shunday dedi: “Bu darvoza doim yopiq
tursin, uni ocha ko‘rmanglar. Birorta odam bu darvozadan foydalanmasin. Men, Isroil
xalqining Xudosi — Egangiz, bu darvozadan kirganim uchun, u yopiqligicha qolsin.
3 Faqatgina hukmdoringiz shu darvoza binosining ichida o‘tirib, Mening huzurimda
muqaddas taomni tanovul qilishi mumkin. Darvoza binosiga u dahliz orqali kirib, yana
o‘sha yo‘l bilan chiqib ketadi.”

Ma’badning kirish joyiga oid qoidalar

4 So‘ng o‘sha odam meni shimoliy darvoza orqali Ma’bad oldiga olib bordi. Voajabo!
Egamizning ulug‘vorligi Ma’badni to‘ldirganini ko‘rdim! Men muk tushdim. 5 Egamiz
menga dedi: “Ey inson, gaplarimni qulog‘ingga quyib ol. Men senga Ma’badimning
qonun–qoidalarini tushuntiraman. Ma’badga kim kirishi mumkin–u, kim kirishi mumkin
emasligini yaxshilab eslab qol. 6 Isyonkor Isroil xalqiga ayt: «Egamiz Rabbiy shunday
demoqda: jirkanch ishlaringizni bas qilinglar! 7 Qurbonliklarning qoni va yog‘i Menga
taqdim qilinayotgan paytda, sizlar yuragi va tanasi sunnat qilinmagan* musofirlarni
dargohimga olib kirib, Ma’badimni bulg‘adingiz. Jirkanch odatlaringiz bilan ahdimni
buzdingiz. 8 Muqaddas nazrlarimga oid talablarimni bajarmay, musofirlarni
Ma’badimdagi xizmatga tayinladingiz. 9 Egamiz Rabbiy shunday demoqda: yuragi va
tanasi sunnat qilinmagan bironta musofir Ma’badimga kirmaydi. Bu Isroil xalqi orasida
yashagan hamma musofirlarga taalluqlidir.»”

Levilar ruhoniylik vazifasidan chetlashtiriladi

10 Egamiz menga dedi: “Isroil xalqi haq yo‘ldan ozganda, ba’zi bir levilar ham Mendan
yuz o‘girib, butlarga sig‘ina boshlagan edilar. Buning uchun Men ularni jazosiz
qoldirmayman. 11 Ular Ma’badimda xizmat qilaveradilar: darvozabonlar bo‘ladilar,
Ma’bad ichida xizmat qiladilar. Kuydiriladigan va boshqa qurbonliklar uchun keltirilgan
hayvonlarni so‘yadilar, Ma’badga kelgan odamlarga xizmat qiladilar. 12 Ammo ular
butlarga sajda qilgan Isroil xalqiga xizmat qilib, xalqni gunohga botirganlari uchun, Men,
Egangiz Rabbiy, qasam ichib aytamanki, ular o‘z jazosini tortadilar. 13 Men ularni
ruhoniylikdan chetlashtiraman. Ular endi na huzurimga kiradilar, na muqaddas
narsalarimga, na eng muqaddas nazrlarimga qo‘l tekkizadilar. Jirkanch odatlari uchun
tortadigan jazosi shu bo‘ladi, ular isnodga qoladilar. 14 Shunga qaramay, Ma’baddagi
hamma yumushlarni bajaraveradilar.

Ruhoniylar

15 Isroil xalqi Mendan yuz o‘girganda, Zodo‘x naslidan bo‘lgan levi ruhoniylari
Ma’badimdagi xizmatlarini sadoqat bilan bajarib keldilar. Shunday ekan, ular doimo
Mening xizmatimda bo‘ladilar. Huzurimda turib, qurbonliklarning qonini va yog‘ini
Menga taqdim qiladilar, — deb aytmoqda Egamiz Rabbiy. 16 — Ma’badimga kiradigan,
dasturxonim yoniga borib, Menga xizmat qiladigan o‘shalardir. Ular Mening talablarimni
bajarishlari shart.

17 Ruhoniylar Ma’badning ichki hovlisiga kirganlarida egnilariga zig‘ir matosidan
tikilgan liboslarni kiyib olishsin. Ma’bad ichkarisida yoki ichki hovlida xizmat
qilganlarida ustilarida bironta junli kiyim bo‘lmasin. 18 Boshlariga zig‘ir salla o‘rab,
ichlaridan zig‘ir ishton kiyib olishsin. Terlatadigan birorta kiyim kiyishmasin. 19 Tashqi
hovliga, xaloyiq oldiga chiqishlaridan oldin xizmat vaqtida kiygan kiyimlarini yechib,
muqaddas hujralarda qoldirishsin. Ustilariga boshqa kiyimlarni kiyib olishsin, toki xalq
muqaddas kiyimlarga qo‘l tekkizmasin*.

20 Ruhoniylar sochlarini o‘z vaqtida kaltalatib turishsin. Soch qirdirish va soch
o‘stirish ularga man etilgan. 21 Ichki hovliga kirishlaridan oldin sharob ichishmasin.
22 Beva yoki eridan ajrashgan ayolga uylanishmasin. O‘z nikohiga faqat Isroil xalqidan
bo‘lgan bokira qizni yoki boshqa ruhoniyning bevasini olishsin.

23 Ruhoniylar xalqimga muqaddas va oddiy narsaning farqini, halol bilan haromning
farqini o‘rgatishsin. 24 Xalqimga qozi bo‘lishsin, arzlarni qonunlarimga muvofiq hal
etishsin. Men tayin etgan bayramlarga oid qonun va farmonlarimga rioya qilishsin.
Shabbat kunini muqaddas saqlashsin.

25 Ruhoniy marhumga yaqinlashib bulg‘anmasin. Vafot etgan odam ruhoniyning
otasi, onasi, farzandi, aka–ukasi yoki turmush qurmagan opa–singlisi bo‘lsagina,
ruhoniy marhumga yaqinlashib, bulg‘anishi mumkin. 26 Bunday hollarda u poklanish
marosimini ado etishi shart. Yetti kundan keyin 27 Ma’badning ichki hovlisiga kirib,
poklanish qurbonligini keltirsin. Shundan keyingina u Ma’badda yana xizmat qila oladi.”
Egamiz Rabbiyning kalomi shudir.

28 Egamiz menga dedi: “Ruhoniylarga Isroil xalqi orasidan hech qanday ulush
berilmasin. Ularning mulki ham, ulushi ham Menman. 29 Don nazri, gunoh va ayb
qurbonliklari ularning rizqidir. Isroil xalqi Menga atagan har bir narsa ruhoniylarga
tegishli bo‘lsin. 30 Ilk hosilning va hamma nazrlarning eng yaxshisi ruhoniylarniki

bo‘lsin. Xamirning birinchi zuvalasidan yopilgan nonni ruhoniylarga nazr qilib beringlar, shunda xonadoningizdan baraka arimaydi. 31 Harom o‘lgan yoki yovvoyi hayvon g‘ajigan jonivorning go‘shtini tanovul qilish ruhoniylarga taqiqlangan.”

45–BOB

Egamizning Isroildagi ulushi

1 Egamiz dedi: “Isroil qabilalariga yerni bo‘lib berayotganingizda, Men, Egangizga tegishli qismini ham ajratib qo‘yinglar. Menga ajratilgan hududning uzunligi 25.000 tirsak*, eni 20.000 tirsak* bo‘lsin. Butun hudud tabarruk hisoblansin. 2 Hududning 500 tirsakka 500 tirsak bo‘lgan to‘rtburchak yeri Ma’bad uchun ajratiladi. Uning atrofi 50 tirsak masofada ochiq joy bo‘ladi.

3-4 Tabarruk hududning yarmi muqaddas maskanda Menga xizmat qilgan ruhoniylarga qarashli bo‘ladi. Uzunligi 25.000 tirsak, eni 10.000 tirsak bo‘lgan hududning bu qismida ruhoniylarning uylari va Ma’bad joylashadi. Bu eng muqaddas joy bo‘ladi.

5 Tabarruk hududning ikkinchi yarmi Ma’baddagi yumushlarni bajarayotgan levilarga qarashli bo‘ladi. Ular yashaydigan shaharlar shu yerda joylashadi*.

6 Tabarruk hududning yoniga uzunligi 25.000 tirsak, eni 5000 tirsak bo‘lgan yerni qo‘shinglar. Bu yerda shahar joylashadi. Isroil xalqidan bo‘lgan har qanday odam kelib, bu shaharda yashasa bo‘ladi.

Hukmdorning yerlari

7 Taxtda o‘tirgan hukmdorga alohida yer berilsin. Unga beriladigan yerning bir qismi tabarruk hududning g‘arbiy chegarasidan O‘rta yer dengizigacha cho‘zilsin. Ikkinchi qismi tabarruk hududning sharqiy chegarasidan Iordan daryosigacha cho‘zilsin. Demak, hukmdorga qarashli yerning uzunligi Isroil qabilalariga ajratilgan yerning uzunligi bilan bir xil bo‘ladi. 8 Bu hukmdorning ulushidir. Bundan buyon hukmdorlar xalqimga zulm o‘tkazmaydilar, Isroil qabilalari o‘z yerlariga o‘zlari egalik qiladilar.

Hukmdorga oid qoidalar

9 Isroil hukmdorlariga ayt: «Egamiz Rabbiy shunday demoqda: zo‘ravonligu zulmingizni bas qiling! Adolatu to‘g‘rilik ila ish tuting. Xalqimni o‘z yeridan mahrum qilmang, — deb aytmoqda Egamiz Rabbiy. 10 — Doim to‘g‘ri o‘lchovni* va to‘g‘ri tarozini ishlating: 11 sochiluvchan quruq narsalarni o‘lchash uchun efa o‘lchov birligidan foydalaning, suyuq narsalarni o‘lchash uchun bat o‘lchov birligidan foydalaning. Efa va batning hajmi bir xil bo‘lsin. Efa ham, bat ham ho‘mrning* o‘ndan bir qismini sig‘dirsin. 12 Og‘irlik birligi sifatida shaqalni ishlating. Bir shaqal 20 geraga, bir mina 60 shaqalga to‘g‘ri kelsin*.»

13 Hukmdorga quyidagi miqdorda soliq to‘lansin:

Bug‘doy hosilining oltmishdan bir qismi*.
Arpa hosilining oltmishdan bir qismi.
14 Zaytun moyining bir foizi*. (Zaytun moyini o‘lchash uchun bat o‘lchov birligidan foydalaning. O‘n bat bir korga, ya’ni bir ho‘mrga* to‘g‘ri keladi.)
15 Suruvdagi ikki yuzta qo‘ydan biri.

Bular don nazri, kuydiriladigan va tinchlik qurbonliklari sifatida xalqni gunohlaridan poklash uchun keltiriladi, — deb aytmoqda Egamiz Rabbiy. 16 — Butun Isroil xalqi bu nazrlarni hukmdorga berishi lozim. 17 Hukmdor yangi oy shodiyonasida, Shabbat va boshqa bayramlarda keltiriladigan qurbonliklaru nazrlar uchun hayvonlarni, don va sharobni ta'minlab berishi shart. Isroil xalqini gunohlaridan poklash uchun keltiriladigan gunoh, tinchlik va kuydiriladigan qurbonliklar hamda don nazri uchun hukmdor mas'uldir."

Bayramlar

18 Egamiz Rabbiy menga dedi: "Birinchi oyning* birinchi kunida Ma'badni poklash uchun nuqsonsiz bir buqani qurbonlik qil. 19 Ruhoniy bu gunoh qurbonligining qonidan olib, Ma'bad eshiklarining kesakisiga*, qurbongohning to‘rt burchagiga va ichki hovli darvozalarining yondorlariga surtsin. 20 Birinchi oyning yettinchi kuni ham xuddi shunday qilsin va shu yo‘l bilan xalqning bilmay qilgan gunohlarini yuvsin. Shunda Ma'bad pok bo‘ladi."

21 So‘ng Egamiz dedi: "Birinchi oyning o‘n to‘rtinchi kunidan boshlab, Fisih ziyofatini va yetti kun davomida Xamirturushsiz non bayramini* nishonlanglar. O‘sha vaqt davomida xamirturushsiz non yenglar. 22 Bayramning birinchi kunida hukmdor o‘zining va butun xalqning gunohlari uchun bir buqani gunoh qurbonligi qilib olib kelsin. 23 U bayramning yetti kuni davomida Menga kuydiriladigan qurbonlik uchun har kuni yettitadan buqa va yettitadan nuqsonsiz qo‘chqor yetkazib bersin. Bundan tashqari, har kuni gunoh qurbonligi uchun bittadan taka bersin. 24 Qurbonlik qilinadigan har bir buqa va har bir qo‘chqor bilan birga bir tog‘ora* don va sakkiz kosa* zaytun moyini bersin.

25 Yettinchi oyning* o‘n beshinchi kunida boshlanadigan Chayla bayrami* uchun ham, yetti kun davomida keltiriladigan gunoh qurbonliklari, kuydiriladigan qurbonliklar, don va zaytun nazrlarini yetkazib tursin."

46–BOB

Hukmdor va bayramlarga oid qonunlar

1 Egamiz Rabbiy menga dedi: "Ichki hovlining sharqiy darvozasi haftaning olti kuni davomida yopiq tursin, Shabbat kuni va yangi oy shodiyonasi kuni ochilsin. 2 Hukmdor tashqi hovlidan bu darvoza binosining dahliziga kirib, dahlizning eshigida tursin. Ruhoniy kuydiriladigan va tinchlik qurbonliklarini keltirayotganda, hukmdor dahliz ostonasida turib Xudoga sajda qilsin. So‘ng kelgan yo‘li bilan chiqib ketsin. Darvoza kechgacha ochiq tursin. 3 Har Shabbat va yangi oy shodiyonasi kuni Isroil xalqi bu darvoza oldida turib, Men, Egangizga sajda qilsin. 4 Har Shabbat kuni hukmdor kuydiriladigan qurbonlik uchun oltita nuqsonsiz qo‘zini va bitta nuqsonsiz qo‘chqorni Menga atab, olib kelsin. 5 Qo‘chqor bilan birga bir tog‘ora* donni nazr qilsin. Qurbonlik qilinadigan har bir qo‘zi bilan birga xohlagan miqdorda don nazr qilsin. Har bir tog‘ora don bilan birga sakkiz kosa* zaytun moyini nazr qilsin. 6 Yangi oy shodiyonasi kuni bitta nuqsonsiz buzoq, oltita nuqsonsiz qo‘zini va bitta nuqsonsiz qo‘chqorni olib kelsin. 7 Menga atalgan har bir buzoq va qo‘chqor bilan birga bir tog‘oradan don nazr qilsin. Qo‘zilar bilan birga esa xohlagan miqdorda don nazr qilsin. Har bir tog‘ora don bilan birga sakkiz kosa zaytun moyini nazr qilsin. 8 Hukmdor ichkariga kirganda, darvoza binosining dahlizi orqali kirsin va yana o‘sha yo‘l bilan qaytib chiqsin.

9 Belgilangan bayramlarda odamlar Men, Egangizga sajda qilgani keladilar. Shunda
ular bir darvozadan kirib, qarshisidagi darvozadan chiqib ketishlari shart. Ma’bad
hovlisiga shimoliy darvozadan kirganlar janubiy darvoza orqali chiqishsin. Janubiy
darvozadan kirganlar shimoliy darvozadan chiqishsin. 10 Hukmdor xalq bilan birga kirib,
xalq bilan birga chiqib ketsin.
11 Shunday qilib, bayramlarda va belgilangan tantanalarda qurbonlik qilinadigan har
bir buzoq va qo‘chqor bilan birga bir tog‘oradan don nazr qilinadi. Qurbonlik
qilinadigan qo‘zilar bilan birga xohlagan miqdorda don nazr qilinishi mumkin. Har bir
tog‘ora don bilan birga sakkiz kosa zaytun moyi nazr qilinadi. 12 Hukmdor ko‘ngildan
chiqarib beradigan tinchlik yoki kuydiriladigan qurbonlikni Men, Egangizga
keltirmoqchi bo‘lganda, u uchun ichki hovlining sharqiy darvozasi ochilsin. Bu
qurbonliklarini u Shabbat kunida keltiradigan qurbonliklarga o‘xshab taqdim qilsin,
darvoza binosidan chiqib ketganidan so‘ng darvoza berkitilsin.

Kundalik nazrlar

13 Har kuni ertalab nuqsonsiz bir yoshli qo‘zini Men, Egangizga qurbonlik qilib,
kuydiringlar. 14 Bu bilan birga, har kuni ertalab don nazrini keltiringlar. Don nazri olti
kosa* sifatli undan va un bilan aralashtiriladigan uch kosa* zaytun moyidan iborat
bo‘lsin. Kundalik qurbonlik va nazrlarga oid bu qoidaga doimiy ravishda rioya qilinglar.
15 Xullas, har kuni ertalab Menga qo‘zini, donni va zaytun moyini kuydiriladigan
qurbonlik qilish uchun olib kelinglar. Bu sizlar uchun abadiy qoida bo‘lsin.”

Hukmdorning yerlariga oid qonunlar

16 Egamiz Rabbiy menga dedi: “Agar hukmdor biror o‘g‘liga yerini sovg‘a qilsa, sovg‘a
qilingan yer o‘sha o‘g‘lining abadiy merosi bo‘lib qoladi. 17 Bordi–yu, hukmdor yerini
biror xizmatkoriga sovg‘a qilsa, xizmatkor sovg‘a qilingan yerga Qutlug‘ yilgacha egalik
qila oladi. Qutlug‘ yilda* yer hukmdorga qaytadi. Hukmdor yerlarini faqatgina o‘z
o‘g‘illariga meros qilib berishi mumkin. 18 Boshqa odamlarning yerlarini tortib olish
unga taqiqlanadi. U o‘g‘illariga faqat o‘zining qaramog‘ida bo‘lgan yerlardan meros
bersin, xalqimni o‘z yeridan mahrum qilmasin.”

Ma’bad oshxonasi

19 So‘ng o‘sha odam* meni darvoza yonidagi yo‘l orqali shimol tomondagi
ruhoniylarning muqaddas xonalari oldiga boshlab bordi*. O‘sha yerdan u menga
g‘arbdagi, eng chetdagi bir joyni ko‘rsatib, 20 dedi: “Anavi — oshxona. Ruhoniylar u
yerda ayb va gunoh qurbonliklarining go‘shtini qaynatadilar, nazr qilingan donning
unidan non yopadilar. Bu muqaddas nazrlarni tashqi hovliga olib chiqmaslik uchun va
xalq muqaddas nazrlarga qo‘l tekkizmasligi uchun* oshxona aynan shu yerda
joylashgan.”
21 So‘ng u meni yana tashqi hovliga olib chiqib, hovlining to‘rt burchagida joylashgan
oshxonalarni ko‘rsatdi. 22 Usti ochiq bu to‘rtala oshxona bir xil: uzunligi 40 tirsak*, eni
30 tirsak edi. 23 Oshxona devorlari bo‘ylab o‘choqlar qurilgan edi. 24 O‘sha odam menga
shunday dedi: “Bu oshxonalar Ma’badda xizmat qiladiganlar uchun mo‘ljallangan. Ular
bu yerda xalq keltirgan qurbonliklar go‘shtini qaynatadilar.”

47–BOB

Ma’baddan oqib chiqqan irmoq

1 O‘sha odam* meni Ma’badning eshigi yoniga olib bordi. Qarasam, Ma’bad
ostonasidan bir irmoq oqib chiqayotgan ekan. Ostonaning janub tomonidan chiqqan bu
irmoq qurbongohning janubidan o‘tib, sharqqa oqayotgan edi. 2 So‘ng o‘sha odam meni
shimoliy darvoza orqali tashqariga olib chiqdi. Biz aylanib, Ma’badning sharqiy
darvozasi yoniga bordik. Irmoq sharqiy darvozaning janub tomonidan jildirab oqib
chiqayotgan edi.
3 O‘sha odam qo‘lidagi arqon bilan sharq tomonga oqayotgan bu irmoqning
uzunligini o‘lchay boshladi. U 1000 tirsak* o‘lchab bo‘lgandan so‘ng, menga irmoqdan
kechib o‘tishimni buyurdi. O‘sha yerdagi suv to‘pig‘imgacha kelar edi. 4 So‘ng yana 1000
tirsak o‘lchab, irmoqdan kechib o‘tishimni buyurdi. Bu safar suv tizzamgacha chiqdi.
Keyingi 1000 tirsak masofadan so‘ng suv belimgacha chiqdi. 5 So‘ng u odam yana 1000
tirsak o‘lchadi, bu yerda irmoq o‘tib bo‘lmaydigan bir daryoga aylangan edi. Daryo shu
qadar chuqur ediki, uni faqat suzib o‘tsa bo‘lar edi. 6 Shunda u odam menga: “Ey inson,
ko‘rgan bu narsani doim yodingda tut”, — dedi–da, meni qirg‘oqqa boshlab ketdi.
7 Qirg‘oqqa chiqqanimizdan so‘ng, men daryoning ikki tomonida o‘sayotgan juda
ko‘p daraxtlarni ko‘rdim. 8 Odam menga dedi: “Bu daryo sahro orqali Iordan vodiysiga*
oqib, O‘lik dengizga quyiladi. Shunda O‘lik dengizning sho‘r suvlari shirin bo‘ladi.
9 Daryo oqib borgan hamma joyda sudraluvchilar yashaydi, baliqlar to‘lib–toshadi.
Shirin bo‘lgan bu suvlar oqib o‘tgan hamma joyda hayot boshlanadi. 10 Odamlar O‘lik
dengizning qirg‘oqlarida turib baliq tutishadi, En–Gedidan En–Exlayimgacha* bo‘lgan
joyda to‘rlarini quritishadi. O‘rta yer dengizidagi* kabi, baliqlarning turi ko‘p bo‘ladi.
11 Biroq botqoqliklar bilan xalqoblarning suvlari yangilanmaydi. Ular tuz manbai bo‘lib
qoladi. 12 Daryoning ikki tomonida turli xil mevali daraxtlar o‘sadi. Ular har oyda yangi
mevalar tugadi, barglari hech qachon so‘limaydi. Ma’baddan chiqqan suv ularni
sug‘organi uchun ular hech qachon hosildan qolmaydi. Ularning mevalari ozuqa bo‘ladi,
barglari shifo keltiradi.”

Yurtning chegaralari

13 So‘ng Egamiz Rabbiy shunday dedi: “Yurtni Isroilning o‘n ikki qabilasiga bo‘lib
berayotganingizda quyidagi ko‘rsatmalarga rioya qilinglar: Yusuf avlodlariga* ikki ulush
yer berilsin. 14 Men ota–bobolaringizga ont ichib, va’da qilgan bu yerni qabilalar orasida
teng bo‘linglar. Bu yer sizning mulkingiz bo‘ladi.
15 Shimoliy chegarangiz O‘rta yer dengizidan boshlanib, sharqqa — Xetlon shahri
tomon boradi, so‘ng Levo–Xomat* orqali o‘tib, Zadod shahrigacha davom etadi. 16 Keyin
Damashq va Xomat oralig‘idagi* Baro‘tax va Sivrayim shaharlarigacha borib, Xavron
chegarasidagi Xazer–Xatikongacha cho‘ziladi. 17 Shunday qilib, shimoliy chegarangiz
O‘rta yer dengizidan sharqdagi Xazor–Enan shahrigacha boradi. Xazor–Enan shahri
janubdagi Damashq va shimoldagi Xomat hududlari orasida joylashgan.
18 Sharqiy chegara Xavron va Damashq hududlari orasida boshlanib, Isroil va Gilad
yerlari o‘rtasidan oqib o‘tgan Iordan daryosi bo‘ylab boradi. O‘lik dengizdan ham o‘tib,
janubdagi Tamar shahrigacha yetib boradi. Mana shu sharqiy chegaradir.
19 Janubiy chegara Tamar shahridan boshlanib, Kadeshdagi Mariva suvlarigacha

boradi, keyin Misr chegarasidagi irmoq* bo‘ylab borib, O‘rta yer dengizigacha yetadi. Bu janubiy chegaradir.

20 O‘rta yer dengizining qirg‘og‘i g‘arbiy chegarani tashkil qilib, Levo–Xomatning
g‘arbdagi shimoliy chegarasi boshlangan joyigacha boradi.

21 Bu yerlarni Isroil qabilalariga bo‘lib beringlar. 22 Ular bu yerlarni qur’a bo‘yicha*
meros qilib olsinlar. Bolalari Isroilda tug‘ilgan orangizdagi musofirlarga ham
yeringizdan ulush beringlar. Ularni Isroilning mahalliy aholisi deb bilinglar. Ularga
o‘zingiz qatori Isroil qabilalari orasidan yerni mulk qilib beringlar. 23 Ular qaysi qabila
orasida yashashsa, o‘sha qabila hududidan yer olishsin.” Egamiz Rabbiyning kalomi
shudir.

48–BOB

Yer qabilalar orasida bo‘linadi

1 Egamiz dedi: “Quyida Isroil qabilalarining nomlari va ularning ulush qilib olgan
yerlari qayd etilgan. Dan qabilasining hududi Isroil yurtining shimolida joylashgan.
Uning chegarasi Xetlon yo‘li bo‘ylab Levo–Xomatga*, so‘ng Xazor–Enanga boradi. Xazor–
Enan shahri janubdagi Damashq va shimoldagi Xomat hududlari orasida joylashgan.
Dan qabilasining hududi Isroil yurtining g‘arbiy chegarasidan sharqiy chegarasigacha
cho‘ziladi. 2 Dan qabilasi hududidan janubda Osher qabilasi joylashadi, uning hududi
ham Isroil yurtining g‘arbiy chegarasidan sharqiy chegarasigacha cho‘ziladi. 3 Osher
hududidan janubda Naftali qabilasi joylashadi, ularning hududi ham g‘arbdan
sharqqacha cho‘ziladi. 4-7 Naftalidan janubda Manashe qabilasi, Manashedan janubda
Efrayim, so‘ng Ruben, so‘ng Yahudo qabilalari joylashadi. Hamma qabilalarning
hududlari Isroil yurtining g‘arbiy chegarasidan sharqiy chegarasigacha cho‘ziladi.

Maxsus ajratilgan yer

8 Yahudo hududidan janubda maxsus ajratilgan yer bo‘ladi. Bu yerning g‘arbdan
sharqqa cho‘zilgan uzunligi har bir qabilaga ajratilgan yerning uzunligi bilan teng, ya’ni
g‘arbdagi O‘rta yer dengizidan to sharqdagi Iordan daryosigacha bo‘ladi. Shimoldan
janubga cho‘zilgan eni esa 25.000 tirsak* bo‘ladi. Bu maxsus ajratilgan yerning o‘rtasida
Ma’bad joylashadi.

9 Bu hududning bir qismi Men, Egangizga ajratilgan bo‘lib, g‘arbdan sharqqa 25.000
tirsakni, shimoldan janubga 20.000 tirsakni* tashkil qiladi. 10 Men bu muqaddas
yerimning yarmini ruhoniylarga beraman. Ularga ajratilgan yerning g‘arbdan sharqqa
bo‘lgan uzunligi 25.000 tirsak, shimoldan janubga cho‘zilgan eni 10.000 tirsak bo‘ladi.
Ruhoniylarga ajratilgan yerning markazida Mening Ma’badim joylashadi. 11 Bu yer faqat
Zodo‘x avlodidan tayinlangan ruhoniylarga tegishli bo‘ladi, chunki ular Mening
talablarimni bajardilar. Isroil xalqi va boshqa levilar Mendan yuz o‘girganlarida, ular
Mendan yuz o‘girmadilar. 12 Menga ajratilgan hududning eng muqaddas joyi
ruhoniylarning maxsus ulushi bo‘ladi. Ruhoniylarning bu yeri levilarning yerlariga
tutashgan bo‘ladi. 13 Men muqaddas yerimning ikkinchi yarmini levilarga beraman.
Ularga beriladigan yerning g‘arbdan sharqqa bo‘lgan uzunligi 25.000 tirsak, shimoldan
janubga cho‘zilgan eni 10.000 tirsak bo‘ladi. Xullas, ruhoniy va levilarga beriladigan
yerning umumiy uzunligi 25.000 tirsak, eni 20.000 tirsak* bo‘ladi. 14 Bu yerni sotish,
ayirboshlash yoki birovning nomiga o‘tkazish qat’iyan man etiladi. Axir, bu yer Meniki, u

muqaddasdir.
15 Menga ajratilgan yerdan janubda shaharga qarashli yerlar bo‘ladi. Bu yerning
g‘arbdan sharqqa bo‘lgan uzunligi 25.000 tirsak, shimoldan janubga cho‘zilgan eni 5000
tirsak bo‘lib, bu yerlarda odamlarning uylari va yaylovlari bo‘ladi. Shahar o‘sha yerning
markazida joylashadi. 16 Shaharning eni va uzunligi bir xil 4500 tirsak bo‘ladi. 17 Shahar
har tomondan eni 250 tirsak bo‘lgan yaylovlar bilan o‘ralgan bo‘ladi. 18 Shahardan ortib
qolgan g‘arbdagi va sharqdagi 10.000 tirsakka 5000 tirsak bo‘lgan yer maydoni dalalar
uchun mo‘ljallangan. U yerda shahardagi ishchilar uchun ozuqa yetishtiriladi.
19 Shaharda yashaydigan har qanday odam, qaysi qabiladan bo‘lmasin, o‘sha dalalarga
ekin ekishi mumkin. 20 Demak, maxsus ajratilgan yer to‘rtburchak shaklda, har bir
tomoni 25.000 tirsak uzunlikda bo‘ladi. Bu yer muqaddas yerlarni va shahar
qaramog‘idagi yerlarni o‘z ichiga oladi.
21 Maxsus ajratilgan yerning g‘arb va sharq tomonidagi ortgan yerlar Isroil
hukmdoriga qarashli bo‘ladi. Hukmdorning sharqdagi yerlari Iordan daryosiga,
g‘arbdagi yerlari O‘rta yer dengiziga borib taqaladi. G‘arbdagi yerning ham, sharqdagi
yerning ham uzunligi 25.000 tirsak bo‘ladi. Ularning o‘rtasida Mening muqaddas
ulushim, Ma’badim, 22 Levilarning ulushi va Quddus shahri joylashadi. Hukmdorning
yerlari shimolda Yahudo qabilasining yerlariga, janubda Benyamin qabilasining
yerlariga chegaradosh bo‘ladi.

Janubdagi qabilalarning yerlari

23 Qolgan qabilalarga quyidagi yerlar ulush qilib beriladi: maxsus ajratilgan yerdan
janubda Benyamin qabilasining hududi bo‘lib, Isroil yurtining sharqiy chegarasidan
g‘arbiy chegarasigacha cho‘ziladi. 24 Benyamin hududidan janubda Shimo‘n qabilasining
hududi bo‘lib, yurtning sharqiy chegarasidan g‘arbiy chegarasigacha cho‘ziladi.
25 Shimo‘n hududidan janubda Issaxor qabilasining hududi bo‘lib, sharqiy chegaradan
g‘arbiy chegaragacha cho‘ziladi. 26 Issaxor hududidan janubda Zabulun qabilasining
hududi bo‘lib, sharqiy chegaradan g‘arbiy chegaragacha cho‘ziladi. 27 Zabulun
hududidan janubda Gad qabilasining hududi bo‘lib, sharqiy chegaradan g‘arbiy
chegaragacha cho‘ziladi.
28 Gad hududining janubiy chegarasi Tamar shahridan to Kadeshdagi Mariva
suvlarigacha boradi, keyin Misr chegarasidagi irmoq* bo‘ylab o‘tib, O‘rta yer
dengizigacha* yetadi. 29 Shunday qilib, Isroil yurti o‘n ikki qabilaga bo‘lib beriladi, olgan
yerlari ularning ulushi bo‘ladi.” Egamiz Rabbiyning kalomi shudir.

Quddus darvozalari

30 Egamiz dedi: “Shaharning darvozalari quyidagicha bo‘lsin: shaharning shimoliy
devori 4500 tirsak uzunlikda bo‘lib, 31 uning uchta darvozasi bo‘ladi. Shahar
darvozalariga Isroil qabilalarining nomlari beriladi. Bu tomondagi darvozalarning
nomlari Ruben, Yahudo va Levi bo‘ladi. 32 Sharqiy devorning uzunligi ham 4500 tirsak
bo‘ladi, uning uchta darvozasi Yusuf, Benyamin va Dan qabilalari nomlari bilan ataladi.
33 Janubiy devorning uzunligi ham 4500 tirsak bo‘ladi, uning uchta darvozasi Shimo‘n,
Issaxor va Zabulun deb nomlanadi. 34 G‘arbiy devorning uzunligi ham 4500 tirsak
bo‘ladi, uning uchta darvozasi Gad, Osher va Naftali deb nomlanadi. 35 Shaharni o‘rab
turgan devorning umumiy uzunligi 18.000 tirsak bo‘ladi. O‘sha vaqtdan boshlab
shaharning nomi «Egamiz shu yerdadir» bo‘ladi.”

IZOHLAR

1:1-3 *Hayotimning o‘ttizinchi yili* — ibroniycha matnda *O‘ttizinchi yil*. Hizqiyolning yoshi nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin.

1:1-3 *to‘rtinchi oy* — ibroniy kalendarining Tammuz oyi nazarda tutilgan. Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan iyunning o‘rtasidan boshlanadi.

1:1-3 *Buzi o‘g‘li ruhoniy Hizqiyol* — yoki *ruhoniy Buzi o‘g‘li Hizqiyol*.

1:1-3 *Bobil* — ibroniycha matnda *Xaldey*, o‘sha vaqtda Bobil yurti shu nom bilan ham atalardi.

1:1-3 *shoh Yohayixin surgundaligining beshinchi yili* — miloddan oldingi 593 yil.

2:1 *inson* — ibroniycha matnda *inson o‘g‘li*. Mazkur kitobda Xudo Hizqiyolga aynan shu ibora bilan murojaat qilgan. Payg‘ambar ham odam zotidan ekanligini, abadiy yashamasligini, u ham Xudoning kuchiga muhtojligini ko‘rsatish uchun shu ibora ishlatilgan.

2:9 *o‘rama qog‘oz* — papirusdan qilingan uzun o‘ralgan qog‘oz. Qadimgi paytlarda kitoblar o‘rama shaklda bo‘lgan.

3:1 *o‘rama qog‘oz* — 2:9 izohiga qarang.

3:12 *Shunda…deb aytayotgan edi* — yoki *Egamizning ulug‘vorligi joyidan ko‘tarilayotganda men orqadan kelayotgan qattiq gumburlagan tovushni eshitdim*.

3:18 *…o‘z gunohi uchun…* — yoki *…o‘z gunohida…* (shu bobning 19, 20–oyatlarida ham bor).

3:20 *…Men uning oyog‘iga to‘g‘onoq solaman, u qoqilib yiqiladi* — ko‘chma ma’nodagi gap bo‘lib, Xudoning hukmiga ishora qiladi. Odamlar Xudodan yuz o‘girib, gunoh qilishga mukkasidan ketganlarida, gunoh o‘sha odamlarning yo‘lida to‘siq toshday bo‘ladi. Ular o‘sha toshga qoqilib, halokat va tanazzulga yuz tutadilar. Yana 7:19, 14:3, 4, 7, 18:30 ga va o‘sha oyatlarning izohlariga qarang.

3:23 *…xuddi Kavor daryosi bo‘yida ko‘rgan ulug‘vorlikka o‘xshar edi* — 1:1-28 ga qarang.

3:27 *…ularga aytadigan gapim bo‘lganda, seni yana tilga kiritaman* — 24:26-27, 33:21-22 ga qarang.

4:2 *…atrofiga qamal inshootlarini bildiruvchi uyumlarni hosil qil, shahar devoriga qiyalatib tuproq uy…* — qadimgi davrlarda dushmanlar devor bilan o‘ralgan shaharga hujum qilayotganlarida, ko‘pincha devor yoniga baland qurilmalar yasaganlar va devorga qiyalatib tuproq uyganlar. Shu yo‘l bilan ular shaharni himoya qilayotgan xalqqa hujum qilish uchun devorni buzishga yoki oshib o‘tishga qulay imkoniyat yaratganlar.

4:4 *Isroil* — shoh Sulaymonning vafotidan keyin Isroil xalqi ikki shohlikka bo‘linib ketdi (3 Shohlar 11:26-12:24 ga qarang). Shimoliy shohlik “Isroil” deb, janubiy shohlik esa “Yahudo” deb ataladigan bo‘ldi. Miloddan oldingi 722 yilda Ossuriyaliklar shimoliy shohlikka hujum qilib, uni batamom yo‘q qilib yubordilar. Hizqiyol davrida faqat janubiy shohlik, ya’ni Yahudo qolgan edi. Shu sababdan Hizqiyol kitobida “Isroil” so‘zi bilan “Yahudo” so‘zi o‘zaro almashgan holda janubiy shohlik aholisiga nisbatan qo‘llanilgan.

To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi ISROIL va YAHUDO so‘zlariga qarang.

4:9 *...ulardan o‘zingga non tayyorlaysan* — har xil donlarni aralashtirib, non tayyorlash qamal paytida Quddusning ayanchli ahvolini ifoda etadi. O‘sha paytda shahar aholisi bor donlardan non yopadigan bo‘ladi.

4:10 *50 misqol* — ibroniycha matnda *20 shaqal*, taxminan 230 grammga to‘g‘ri keladi.

4:11 *bir kosa* — ibroniycha matnda *xinning oltidan bir qismi*, taxminan yarim litrga to‘g‘ri keladi.

4:13 *...ular ham xuddi shunday harom nonni yeydigan bo‘ladilar* — Yahudo xalqi Bobilga surgun qilingandan keyin shu bobning 12–oyatida tasvirlangan ayanchli ahvolga tushadi. Ularning yeydigan ovqati harom bo‘ladi.

5:1 *...soching bilan soqolingni qirib tashla* — o‘ta xo‘rlanish belgisi. Odatda bosqinchilar o‘zlari mag‘lub qilgan odamlarning sochi bilan soqolini qirib tashlaganlar.

6:3 *sajdagoh* — ibroniycha matnda *bamax*, ya’ni “tepalik” (shu bobning 6–oyatida ham bor). Kan’on xudolariga topinadigan joylar *bamax* deb atalardi. Odatda bu sajdagohlar tepaliklarda joylashgan bo‘lib, u yerda Kan’on xudolarining tasvirlari va qurbonliklar keltirish uchun qurbongoh bo‘lardi.

6:14 *Rivlo* — ba’zi ibroniy qo‘lyozmalaridan. Ibroniycha matnda *Divlo*, noma’lum bir shaharning nomi bo‘lsa kerak. Rivlo shahri hozirgi Suriyada joylashgan bo‘lib, Isroil shohligining eng shimoliy nuqtasini tashkil qilardi.

7:18 *Ular qayg‘udan qanorga o‘ranishadi...sochlarini qirdirishadi...* — qanor dag‘al qoramtir mato bo‘lib, echki yoki tuya junidan to‘qilgan. Qanorga o‘ranib olish va sochni qirish umidsizlikni va qayg‘uli holatni ifodalaydi.

7:19 *...oltinu kumushi Isroil xalqining boshiga halokat keltiradi* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *...gunohlari dastidan oltinu kumush ular uchun qoqiltiradigan tosh bo‘ldi*. 3:20 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

7:22 *aziz uyim* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *mening xazinam*, Ma’badga ishora bo‘lsa kerak. Lekin umumiy ma’noda Quddusga yoki butun Isroil yurtiga ishora qilingan bo‘lishi ham mumkin.

8:1 *Surgun bo‘lgan paytimizning oltinchi yili oltinchi oyi* — miloddan oldingi 592 yilning oltinchi oyi (1:1-3 ga va o‘sha oyatlarning oxirgi izohiga qarang). Ibroniy kalendarining Elul oyi nazarda tutilgan. Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan avgustning o‘rtasidan boshlanadi.

8:3 *shimoliy darvoza* — Yuqori darvoza nomi bilan ham ma’lum edi (9:2 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang).

8:4 *Men bunday vahiyni vodiyda ham ko‘rgan edim* — 3:22-23 ga qarang.

8:10 *harom hayvonlar* — Levilar 11–bobga qarang.

8:14 *...xudo Tammuz uchun qayg‘urib yig‘layotgan edilar* — butparast xalqning e’tiqodi va tasavvuriga ko‘ra, bu xudo o‘simliklar xazon bo‘lgan paytda o‘lib, keyingi yil tabiat uyg‘onganda tirilardi. Har yili ayollar bu xudoga aza tutib, qayg‘u marosimini o‘tkazishardi va shu orqali uni hayotga qaytarmoqchi bo‘lishardi.

8:17 *Meni haqorat qilayotganlarini...* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi

Daraxt shoxini burunlariga olib borayotganini…. Boshqa xudolarga atalgan marosimlarda bajariladigan harakatga yoki Egamizga nisbatan haqoratomuz qiliqqa ishora bo‘lishi mumkin. Boshqa xudolarga sig‘inish Egamizning nazarida Unga nisbatan o‘ta hurmatsizlikni va haqoratni bildirardi.

9:2 *shimoldagi Yuqori darvoza* — Ma’badning ichki hovlisiga olib boradigan bu darvoza shimolga qaratib qurilgan edi (8:3 ga qarang). Bu darvoza tepalikda joylashgani uchun “Yuqori” deb nom olgan (4 Shohlar 15:35 ga qarang).

9:3 *Karublar* — qanotli samoviy mavjudotlar. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi KARUB, KARUBLAR so‘ziga qarang.

10:1 *gumbaz* — 1:22 ga qarang.

10:15 *Men Kavor daryosi bo‘yida ko‘rgan jonli mavjudotlar* — 1:1-28 ga qarang.

11:9 *ajnabiylar* — Bobil xalqi nazarda tutilgan.

11:23 *shaharning sharq tomonidagi tog‘* — Zaytun tog‘i nazarda tutilgan.

11:24 *Bobil* — ibroniycha matnda *Xaldey*, o‘sha vaqtda Bobil yurti shu nom bilan ham atalardi.

12:10-11 *Quddusda hukmronlik qilayotgan shahzoda* — Yahudo shohi Zidqiyo nazarda tutilgan (4 Shohlar 25:4-7 ga qarang).

12:13 *Xaldeylar* — o‘sha vaqtda Bobilliklar shu nom bilan ham atalardi.

13:18 *Sizlar…yopasizlar* — odamlarga yomonlik keltirish maqsadida qilingan sehr–joduga ishora.

14:3 *…gunoh ularning boshiga halokat keltiradi* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *…ular gunohni o‘z oldilariga qoqiltiradigan tosh qilib qo‘yishdi* (shu bobning 4, 7–oyatlarida ham bor). 3:20 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

14:14 *Doniyor* — yoki *Danel* (shu bobning 20–oyatida ham bor). Hizqiyol payg‘ambar bu bashoratini aytganda, Doniyor payg‘ambar hali juda yosh edi. Shu sababdan, ba’zi olimlarning fikriga ko‘ra, bu yerda tilga olingan Doniyor Muqaddas Kitobdagi Doniyor payg‘ambar emas, balki Kan’ondagi xalqlarning dostonlarida madh qilingan Danel ismli dono va odil hukmdor bo‘lishi mumkin.

16:3 *…sen Kan’on yurtida tug‘ilgansan, sening otang Amor xalqidan, onang Xet urug‘idan bo‘lgan* — Amor, Xet va Kan’on yurtida yashagan jamiki xalqlar butparast bo‘lib, Egamizga sajda qilishmasdi.

16:7 *…eng go‘zal bir gavharga o‘xshab qolding* — yoki *…sen ayol bo‘lib yetilding*.

16:15 *fahsh yo‘liga kirding* — Eski Ahdda zino yoki fahsh so‘zlari ko‘pincha majoziy ma’noda ishlatilgan bo‘lib, Egamizga xiyonat qilishni va boshqa xudolarga sig‘inishni bildiradi. O‘sha paytlarda Kan’ondagi butparast xalqlar o‘z sajdagohlarida diniy vazifalardan birini fahsh orqali bajarardilar. Butparast xalqlarning udumlariga ko‘ra, odamlar fohishalar va fohishlar bilan jinsiy aloqa qilish orqali o‘z xudolariga topinardilar, xudolaridan farovonlik ato qilishni so‘rardilar.

16:16 *sajdagoh* — ibroniycha matnda *bamax*, ya’ni “tepalik”. 6:3 izohiga qarang.

16:21 *…ularni butlaringga qurbonlik qilib, olovda kuydirishing…* — ibroniycha matndan

so‘zma–so‘z tarjimasi *…ularni butlaringga (olovdan) o‘tkazishing…*. Butparast xalqlarga xos bo‘lgan bu jirkanch odat Xudoning nazarida o‘taketgan qabihlik edi.

16:24 *…so‘rilar…baland supalar…* — ko‘chma ma’noda ishlatilgan so‘zlar bo‘lib, xalq boshqa xudolarga sig‘ingan joylarga ishora qiladi (shu bobning 15–oyati izohiga qarang). Shu bobning 31, 39–oyatlarida ham bor.

16:28 *Ossuriya* — qadimgi qudratli shohlik. Uning poytaxti Naynavo shahri hozirgi Iroqning shimolida joylashgan edi. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi OSSURIYA so‘ziga qarang.

16:29 *Bobil* — ibroniycha matnda *Xaldey*, o‘sha vaqtda Bobil yurti shu nom bilan ham atalardi.

16:45 *Sening onang Xet urug‘idan, otang Amor xalqidan edi* — shu bobning 3–oyatiga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

16:57 *Edom* — ko‘plab ibroniy qo‘lyozmalaridan va qadimiy suryoniycha tarjimadan. Ibroniycha matnda *Oram*. “Oram” va “Edom” so‘zlari ibroniychada deyarli bir xil yoziladi. O‘sha davrda Edom xalqi Yahudo xalqiga dushman edi (25:12-14, 35:1-15 ga qarang).

16:60 *yoshligingda sen bilan tuzgan ahdim* — shu bobning 8–oyatiga qarang.

16:61 *Opang…singling…* — shu bobning 46–oyatiga qarang.

17:3 *burgut* — Bobil shohi Navuxadnazar nazarda tutilgan (shu bobning 12–oyatiga qarang).

17:3 *sadr daraxti* — Lubnon tog‘larida o‘sadigan bu sadr daraxtlari dunyoning o‘sha hududidagi eng katta daraxt turlaridan edi.

17:7 *boshqa…burgut* — Misr shohi nazarda tutilgan (shu bobning 15–oyatiga qarang).

17:10 *garmsel* — hosilga katta ziyon keltiradigan issiq shamol.

17:12 *u yerdagi shoh* — shoh Yohayixin nazarda tutilgan (4 Shohlar 24:8-16 ga qarang).

17:13-14 *shoh oilasiga mansub bo‘lgan bir kishi* — shoh Yohayixinning amakisi Zidqiyo nazarda tutilgan. Bobil shohi Navuxadnazar uni Yohayixinning o‘rniga shoh qilib tayinlagan edi (4 Shohlar 24:17 ga qarang).

17:15 *Isroil shohi* — Zidqiyo nazarda tutilgan (4 Shohlar 24:18-20 ga hamda Yeremiyo 37:5 ga va o‘sha oyatning birinchi izohiga qarang).

17:17 *…shahar devoriga qiyalatib tuproq uydiradi…* — 4:2 izohiga qarang.

17:17 *qamal inshootlari* — 4:2 izohiga qarang.

17:22 *nozik bir novda* — Dovud avlodidan kelib chiqadigan shoh nazarda tutilgan. Yana Ishayo 11:1, Zakariyo 3:8 ga qarang.

17:23 *Isroil tog‘i* — Quddusdagi Sion tog‘iga ishora. Quddusdagi Ma’bad qurilgan tepalik Sion tog‘i deb atalgan. Eski Ahddagi she’riy parchalarda va payg‘ambarlar bitiklarida Sion so‘zi ko‘pincha Quddus shahriga nisbatan ishlatilgan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi SION so‘ziga qarang.

18:17 *…kambag‘alga jabr yetkazmasa…* — ibroniycha matndan. Qadimiy yunoncha tarjimada *…o‘zini gunohdan tortsa…* (yana shu bobning 8–oyatiga qarang).

18:30 *…gunoh boshingizga halokat keltiradi* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *…bu gunoh sizlar uchun qoqiltiradigan tosh bo‘ladi*. 3:20 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

19:1 *ikki shahzoda* — shoh Yohuxoz va shoh Zidqiyo nazarda tutilgan (shu bobning 3, 5–oyatlariga va o‘sha oyatlarning izohlariga qarang).

19:2 *Sening onang* — Yahudo qabilasiga ishora (Ibtido 49:8-9 ga qarang). Shoh Yohuxoz va shoh Zidqiyo aynan shu qabiladan kelib chiqqan edi.

19:3 *Bitta bolasi* — fir’avn Nexo zanjirband qilgan shoh Yohuxoz nazarda tutilgan (4 Shohlar 23:31-34 ga qarang).

19:5 *boshqa bolasi* — shoh Zidqiyo nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin (12:10-14, 17:13-21 ga va 4 Shohlar 24:18-25:7 ga qarang).

19:7 *Qal’alarini buzar edi…* — qadimiy yunoncha tarjimadan. Ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *Bevalarni bildi….* Ba’zi olimlarning fikri bo‘yicha, bu ibora mazkur o‘rinda *bevalarini zo‘rlar edi* ma’nosida kelgan.

19:10 *Sening onang* — Yahudo qabilasidan bo‘lgan shohlar sulolasiga ishora.

19:11 *Saltanat hassalari* — Ibtido 49:10 ga qarang. Saltanat hassasi shoh va hukmdorlarning hokimiyatini bildiruvchi ramz edi.

20:1 *Surgun bo‘lgan paytimizning yettinchi yili beshinchi oyi* — miloddan oldingi 591 yilning beshinchi oyi (1:1-3 ga va o‘sha oyatlarning oxirgi izohiga qarang). Ibroniy kalendarining Av oyi nazarda tutilgan. Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan iyulning o‘rtasidan boshlanadi.

20:6 *sut va asal oqib yotgan yurt* — nihoyatda hosildor yerni bildiruvchi ibora. Mo‘l–ko‘l sut — mol uchun ko‘m–ko‘k yaylovlarning ko‘pligini bildiradi. Asal — xurmodan olinadigan quyuq, shirin murabboga ishora bo‘lishi mumkin. Murabboning mo‘lligi yaxshi hosil beradigan yerni bildiradi.

20:26 *To‘ng‘ich bolalarini qurbonlik qilib, olovda kuydirishlariga yo‘l qo‘yib berdim* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *To‘ng‘ich bolalarini (olovdan) o‘tkazishlariga yo‘l qo‘ydim* (shu bobning 31–oyatida ham bor). Butparast xalqlarga xos bo‘lgan bu jirkanch odat Xudoning nazarida o‘taketgan qabihlik edi.

20:29 *Sajdagoh* — ibroniycha matnda *Bamax*, ya’ni “Tepalik”. 6:3 izohiga qarang.

20:29 *Bamax* — bu oyatda so‘z o‘yini ishlatilgan. Ibroniy tilida *bamax* so‘zi “tepalik”, ya’ni “sajdagoh” ma’nosini bildiradi. So‘roq gapda ishlatilgan ohangdosh ibroniycha so‘zlar esa *max ba*, ya’ni “ular qayerga boryaptilar?” degan ma’noni anglatadi.

20:36 *Misr sahrosi* — Sinay sahrosiga ishora.

20:40 *…muqaddas tog‘im…Isroilning baland tog‘i…* — Quddusdagi Sion tog‘iga ishora. 17:23 izohiga qarang.

20:46 *…janubga…Nagavdagi o‘rmonga qarshi…* — Yahudo yurti va Quddus shahri nazarda tutilgan (21:2 ga qarang).

21:2 *barcha sajdagohlari* — yoki *sajdagohi* bo‘lib, Ma’bad va umuman Quddus nazarda tutilgan (20:46 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang).

21:3 *Qilichim* — Bobil shohi Navuxadnazar nazarda tutilgan. U orqali Xudo Yahudo xalqini va boshqa xalqlarni jazolagan (21:18-23, 30 ga qarang).

21:10 *saltanat hassasi* — bu maxsus hassa bo‘lib, shoh va hukmdorlarning hokimiyatini bildiruvchi ramz edi.

21:10 *...Qilichim saltanat hassasini mensimaydi, Hech qanday tayoqni pisand qilmaydi* — Yahudo, ya’ni janubiy shohlik aholisi Xudoning tanlangan xalqi bo‘lishiga qaramay, Xudoga bo‘lgan itoatsizligi uchun butun xalq hukmdori bilan birga jazolangan edi.

21:22 *...shahar devoriga qiyalatib tuproq uydiradi...* — 4:2 izohiga qarang.

21:22 *qamal inshootlari* — 4:2 izohiga qarang.

21:25 *Isroil hukmdori* — shoh Zidqiyo nazarda tutilgan.

21:30 *Ey Bobil shohi...Boshqalarni jazolashdan to‘xta!* — ibroniycha matnda *Qilichni qiniga sol!* 21:3 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

22:18 *toshqol* — kumush eritilganda qoladigan qotishma. U chiqindi hisoblanadi va tashlab yuboriladi.

22:25 *shahzodalar* — qadimiy yunoncha tarjimadan (yana 19:1-6 ga qarang). Ibroniycha matnda *payg‘ambarlar to‘dasi*.

23:4 *Oxola Samariyani, Oxolibo Quddusni bildiradi* — Oxola Isroilni, ya’ni shimoliy shohlikni, Oxolibo Yahudoni, ya’ni janubiy shohlikni bildiradi (yana 4:4 izohiga qarang). Shimoliy shohlikning poytaxti — Samariya, janubiy shohlikning poytaxti Quddus edi. Oxola va Oxoliboning axloqsizligi majoziy ma’noni ifodalab, Yahudo va Isroil xalqlarining butparast ittifoqdoshlariga va ularning xudolariga bo‘lgan ishonchini, rizqini beradigan haq Xudoga esa o‘taketgan sadoqatsizligini bildiradi.

23:14 *Bobilliklar* — ibroniycha matnda *Xaldeylar*, o‘sha vaqtda Bobilliklar shu nom bilan ham atalardi (shu bobning 16–oyatida ham bor).

23:15 *Xaldey* — o‘sha vaqtda Bobil yurti shu nom bilan ham atalardi.

23:23 *Xaldeylar* — o‘sha vaqtda Bobilliklar shu nom bilan ham atalardi.

23:31 *jazo kosasi* — Xudo g‘azabining ramzi bo‘lgan sharob kosasiga ishora. Mana shu sharobdan mast bo‘lish Xudoning hukmiga duchor bo‘lishni bildiradi (Ishayo 51:17-23, Yeremiyo 25:15-29 ga qarang).

23:37 *...bolalarini o‘sha butlarga taom nazri sifatida qurbonlik qilib, olovda kuydirdilar* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *...bolalarini o‘sha butlarga taom nazri sifatida (olovdan) o‘tkazdilar*. Butparast xalqlarga xos bo‘lgan bu jirkanch odat Xudoning nazarida o‘taketgan qabihlik edi.

23:42 *bu mayxo‘r qalang‘i–qasang‘ilar* — yoki *bu qalang‘i–qasang‘ilar Savoliklar bilan birga*. Savoliklar ko‘chmanchi qabila bo‘lib, janubdan — Arabiston yarim orolidan kelgan bo‘lishi mumkin.

24:1 *Surgun bo‘lgan paytimizning to‘qqizinchi yili o‘ninchi oyi* — miloddan oldingi 589 yilning o‘ninchi oyi (1:1-3 ga va o‘sha oyatlarning oxirgi izohiga qarang). Ibroniy kalendarining Tabat oyi nazarda tutilgan. Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan dekabrning o‘rtasidan boshlanadi.

24:2 *…Bobil shohi bugun Quddusni qamal qildi* — 4 Shohlar 25:1 ga qarang.

24:5 *o‘tin* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *suyaklar*.

24:10 *…sho‘rvasi qaynab yo‘q bo‘lsin* — yoki *…ziravorlar qo‘shilsin*.

24:27 *…sen yana tilga kirasan* — 3:26-27, 33:21-22 ga qarang.

25:2 *Ommon* — bu yurt Iordan daryosining sharq tomonida joylashgan edi.

25:8 *Mo‘ab* — bu yurt O‘lik dengizning sharqida joylashgan edi.

25:8 *Mo‘ab xalqi* — qadimiy yunoncha tarjimadan. Ibroniycha matnda *Mo‘ab va Seir xalqlari*. Seir Edom yurtining yana bir nomi edi, Seir nomi ibroniycha matndagi mazkur bashoratda (shu bobning 8-11–oyatlarida) boshqa ishlatilmagan. Edom xalqi haqida bashorat shu bobning 12-14–oyatlarida berilgan.

25:12 *Edom* — bu yurt O‘lik dengizning janubida joylashgan edi.

25:13 *Temon shahri…Dedon shahri…* — Edom xalqining jamiki yerlarini tasvirlashning bir yo‘li, ya’ni shimoldan janubgacha degan ma’noda kelgan. Temon — Edom yurtining shimolida, Dedon Edomdan janubi–sharqda joylashgan edi.

25:15 *Filistlar* — Isroil yurtidan g‘arbda, O‘rta yer dengizi bo‘yida yashagan xalq.

25:16 *Xaret xalqi* — o‘sha vaqtda Filistlar shu nom bilan ham atalardi. Bu nom Krit so‘zidan olingan bo‘lishi mumkin. Filistlarning ajdodlari Krit orolidan kelgan edilar (Yeremiyo 47:4, Amos 9:7 ga va o‘sha oyatlarning ikkinchi izohiga qarang).

26:1 *Surgun bo‘lgan paytimizning o‘n birinchi yili* — miloddan oldingi 587 yil (1:1-3 ga va o‘sha oyatlarning oxirgi izohiga qarang).

26:2 *Tir* — Finikiyada muhim ahamiyatga ega bo‘lgan shahar. Bu shahar Isroildan shimolda, O‘rta yer dengizi bo‘yida joylashgan edi. Bugungi kunda bu yer Livan mamlakatining janubiy hududini tashkil qiladi. Shaharning bir qismi qo‘rg‘on bo‘lib, bu qo‘rg‘on kichkina orolda, dengiz qirg‘og‘idan uzoq bo‘lmagan joyda qurilgan edi.

26:5 *bu orol* — shu bobning 2–oyati izohiga qarang.

26:8 *qamal inshootlari* — 4:2 izohiga qarang.

26:8 *…shahar devoriga qiyalatib tuproq uydiradi…* — 4:2 izohiga qarang.

26:20 *go‘r* — *Sheo‘l*, ya’ni o‘liklar diyori nazarda tutilgan. Qadimda Isroil xalqi *Sheo‘l*ni yer ostidagi tubsiz chuqurlik, marhumlar boradigan qorong‘i joy deb tushunardi.

27:2 *Tir* — 26:2 izohiga qarang.

27:5 *Xermon tog‘i* — ibroniycha matnda *Sanir tog‘i*, Xermon tog‘ining qadimgi nomi (Qonunlar 3:9 ga qarang).

27:5 *Lubnondan keltirilgan sadr yog‘ochi* — 17:3 ning ikkinchi izohiga qarang.

27:6 *Kipr* — ibroniycha matnda *Kittim*, Kiprning qadimgi nomi.

27:8 *Sidon va Arvod* — Sidon Finikiyada muhim ahamiyatga ega bo‘lgan shahar edi. Bu shahar Isroildan shimolda, O‘rta yer dengizi bo‘yida joylashgan edi. Bugungi kunda bu shahar Livan mamlakatining janubiy hududini tashkil qiladi. Arvod shahri ham, Tir shahri singari, orolda qurilgan bo‘lib, Sidondan shimolda, O‘rta yer dengizining qirg‘og‘iga yaqin joyda joylashgan edi.

27:9 *Gabol* — Bibl nomi bilan ham ma’lum. Bu shahar O‘rta yer dengizi bo‘yida, Sidon shahridan shimolda joylashgan edi.

27:10 *Fors, Lidiya va Liviya* — ibroniycha matnda bu yurtlarning qadimgi nomlari: *Faras, Lud va Fut*. Lidiya hozirgi Turkiyaning sharqida joylashgan edi.

27:11 *Xelek* — Kilikiya yurtining yana bir nomi bo‘lishi mumkin. Bu yurt hozirgi Turkiyaning janubida, O‘rta yer dengizi bo‘yida joylashgan edi.

27:12 *Tarshish* — hozirgi Ispaniyaning hududida joylashgan bu bandargoh shahar o‘zining katta va haybatli kemalari bilan mashhur edi. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi BANDARGOH so‘ziga qarang.

27:13 *Yunonlar* — ibroniycha matnda *Yovon*, o‘sha vaqtda Yunon xalqi shu nom bilan ham atalardi.

27:13 *Tuval va Meshex* — bu xalqlar hozirgi Turkiya hududida yashagan.

27:14 *To‘xarmo* — bu yurt hozirgi Turkiya hududida joylashgan edi.

27:15 *Ro‘don* — qadimiy yunoncha tarjimadan. Ibroniycha matnda *Dedon*, Arabiston yarim orolining shimoli–g‘arbida joylashgan shahar va uning atrofidagi hudud. Ro‘don oroli O‘rta yer dengizida, hozirgi Turkiyaning janubi–g‘arbiy chegarasini tashkil qilgan qirg‘oq yaqinida joylashgan edi. Geografik jihatdan mazkur o‘ringa to‘g‘ri keladi.

27:15 *obnus yog‘ochi* — qimmatbaho qora yog‘och.

27:16 *Oram* — ibroniycha matndan. Ba’zi ibroniy qo‘lyozmalarida va qadimiy suryoniycha tarjimada *Edom*.

27:18 *Xelbon* — Damashqdan qariyb 20 kilometr shimolda joylashgan edi.

27:18 *oppoq yung* — yoki *Zaxardan keltirilgan yung*.

27:19 *Uzol shahridan sharob keltirib…* — yoki *Uzol shahridan Dan va Yovon xalqlari…*. O‘sha vaqtda Yunon xalqi Yovon deb ham atalardi.

27:20 *Dedonliklar* — 25:13 izohiga qarang.

27:20 *ot terligi* — egar ostiga qo‘yiladigan yoki egar o‘rnida ishlatiladigan mato.

27:21 *Kedar* — Arabiston sahrosidagi yerlar.

27:22 *Shava va Ramo* — Arabiston yarim orolida joylashgan yurtlar.

27:23 *…Xoron, Xannox…Eden…Oshur va Xilmad…* — bu beshta shahar Mesopotamiyada, ya’ni Dajla va Furot daryolari orasidagi hududda joylashgan edi. Qadimiy yunoncha tarjimada *Shava* (Arabiston sahrosining bir yurti) bu ro‘yxatga kiritilmagan.

27:25 *Tarshish* — shu bobning 12–oyati izohiga qarang.

27:31 *…sochlarini qirdiradi, Qanorga o‘ranib oladi…* — 7:18 izohiga qarang.

28:2 *Tir* — 26:2 izohiga qarang.

28:3 *Doniyor* — yoki *Danel*. 14:14 izohiga qarang.

28:13 *Qizil yoqut…zumrad…* — ibroniycha matnda aytib o‘tilgan ba’zi qimmatbaho toshlarning turi bahsli.

28:21 *Sidon* — 27:8 izohiga qarang.

29:1 *Surgun bo‘lgan paytimizning o‘ninchi yili o‘ninchi oyi* — miloddan oldingi 588 yilning o‘ninchi oyi (1:1-3 ga va o‘sha oyatlarning oxirgi izohiga qarang). Ibroniy kalendarining Tabat oyi nazarda tutilgan. Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan dekabrning o‘rtasidan boshlanadi.

29:4 *baliqlar* — fir’avnning a’yonlari yoki qo‘l ostidagilari nazarda tutilgan. Ular fir’avn bilan birga hukm qilinadilar.

29:7 *…bellarini chiqarib yubording* — yoki *…yiqilishlariga sababchi bo‘lding*.

29:10 *Habashiston* — ibroniycha matnda *Kush*. Bu joy Misrdan janubda bo‘lib, hozirgi Sudan va Efiopiya mamlakatlarining bir qismini o‘z ichiga olgan edi.

29:14 *Patro‘s* — Misr janubiy hududining qadimgi nomi.

29:17 *Surgun bo‘lgan paytimizning yigirma yettinchi yili birinchi oyi* — miloddan oldingi 571 yilning birinchi oyi (1:1-3 ga va o‘sha oyatlarning oxirgi izohiga qarang). Ibroniy kalendarining Nison oyi nazarda tutilgan (Nison oyi Abib oyi deb ham ataladi). Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan martning o‘rtasidan boshlanadi.

29:18 *…Navuxadnazar Tirga qarshi shiddatli urush olib bordi…* — miloddan oldingi 586 yilda Navuxadnazar Tir shahrini qamal qildi (26:7-14 ga qarang). Qamal o‘n uch yil davom etdi.

29:21 *…Men Isroil xalqining qudratini tiklayman* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *…Men Isroil xalqidan shox o‘stirib chiqaraman*. Eski Ahdda buqaning shoxi ko‘pincha ko‘chma ma’noda ishlatilib, kuchli hukmdorga yoki harbiy qudratga ishora qilgan.

30:3 *Mening g‘azab kunim* — ibroniycha matnda *Egamizning kuni*, Eski Ahddagi payg‘ambarlar bitiklarida bir necha marta uchraydigan ibora. Ko‘pincha bu ibora Xudo beradigan jazoga ishora qiladi. Bu ibora yana qiyomat kunidagi Xudoning hukmiga nisbatan ham ishlatiladi. O‘sha kuni Xudo O‘z dushmanlari ustidan g‘alaba qozonadi va ularni jazolaydi, O‘ziga sodiq qolganlarga esa orom bag‘ishlaydi, ularga tinchlik va qut–barakalar ato qiladi.

30:4 *Habashiston* — ibroniycha matnda *Kush* (shu bobning 5, 9–oyatlarida ham bor). 29:10 izohiga qarang.

30:5 *Liviya, Lidiya* — ibroniycha matnda bu yurtlarning qadimgi nomlari: *Fut, Lud*. Lidiya hozirgi Turkiyaning sharqida joylashgan edi.

30:5 *Kub* — yoki *Lub* (Noxum 3:9 ga va o‘sha oyatning ikkinchi izohiga qarang).

30:13 *Nuf* — Memfis nomi bilan ham ma’lum. Memfis shahri Misr shimoliy hududining markazi bo‘lib, Misr tarixida birmuncha vaqt poytaxt ham bo‘lgan edi.

30:14 *Patro‘s* — Misr janubiy hududining qadimgi nomi.

30:14 *No‘* — Fiva nomi bilan ham ma’lum. Fiva shahri Misr janubiy hududining markazi bo‘lib, Misr tarixida birmuncha vaqt poytaxt ham bo‘lgan edi.

30:17 *On* — Geliopol nomi bilan ham ma’lum.

30:17 *Pi–Bashat* — Bubast nomi bilan ham ma’lum.

30:20 *Surgun bo‘lgan paytimizning o‘n birinchi yili birinchi oyi* — miloddan oldingi 587

yilning birinchi oyi (1:1-3 ga va o‘sha oyatlarning oxirgi izohiga qarang). Ibroniy kalendarining Nison oyi nazarda tutilgan (Nison oyi Abib oyi deb ham ataladi). Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan martning o‘rtasidan boshlanadi.

31:1 *Surgun bo‘lgan paytimizning o‘n birinchi yili uchinchi oyi* — miloddan oldingi 587 yilning uchinchi oyi (1:1-3 ga va o‘sha oyatlarning oxirgi izohiga qarang). Ibroniy kalendarining Shavon oyi nazarda tutilgan. Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan mayning o‘rtasidan boshlanadi.

31:3 *Lubnondagi sadr daraxti* — 17:3 ning ikkinchi izohiga qarang.

31:11 *ajnabiy hukmdor* — Bobil shohi Navuxadnazar nazarda tutilgan. Miloddan oldingi 568 yilda u Misrni bosib olgandi.

31:15 *o‘liklar diyori* — ibroniycha matnda *Sheo‘l* (shu bobning 16, 17–oyatlarida ham bor). 26:20 izohiga qarang.

32:1 *Surgun bo‘lgan paytimizning o‘n ikkinchi yili o‘n ikkinchi oyi* — miloddan oldingi 585 yilning o‘n ikkinchi oyi (1:1-3 ga va o‘sha oyatlarning oxirgi izohiga qarang). Ibroniy kalendarining Adar oyi nazarda tutilgan. Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan fevralning o‘rtasidan boshlanadi.

32:17 *O‘sha oy* — shu bobning 1–oyatiga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

32:18 *…go‘rdagi marhumlar oldiga…* — *Sheo‘l*, ya’ni o‘liklar diyori nazarda tutilgan. Qadimda Isroil xalqi *Sheo‘l*ni yer ostidagi tubsiz chuqurlik, marhumlar boradigan qorong‘i joy deb tushunardi. Yana shu bobning 21, 23–oyatlariga qarang.

32:21 *O‘liklar diyori* — ibroniycha matnda *Sheo‘l*. Shu bobning 18–oyati izohiga qarang.

32:24 *Elam* — bu yurt Bobil yurtidan janubi–sharqda, hozirgi Eron hududida joylashgan edi.

32:26 *Meshex bilan Tuval* — 27:13 ning ikkinchi izohiga qarang.

32:27 *Qadimda qahramonlar…* — qadimiy yunoncha va lotincha tarjimalardan. Ibroniycha matnda *Sunnatsiz qahramonlar…*.

32:27 *…qahramonlarni…dafn qilishar edi* — ibroniycha matnda *…qahramonlar…Sheo‘lga ravona bo‘lgan*. Shu bobning 18–oyati izohiga qarang.

32:27 *…tanasini qalqon bilan yopishar edi* — yoki *…gunohlari uchun olgan jazosi tanalari ustida qolgan*.

32:30 *Shimoldagi saltanatlarning hamma shahzodalari* — Finikiyalik va Oramlik hukmdorlar nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin.

33:8 *…o‘z gunohi dastidan…* — yoki *…o‘z gunohlarida…* (shu bobning 9–oyatida ham bor).

33:21 *Surgun bo‘lgan paytimizning o‘n ikkinchi yili o‘ninchi oyi* — miloddan oldingi 586 yilning o‘ninchi oyi (1:1-3 ga va o‘sha oyatlarning oxirgi izohiga qarang). Ibroniy kalendarining Tabat oyi nazarda tutilgan. Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan dekabrning o‘rtasidan boshlanadi.

33:22 *…Egamiz menga gapirish iqtidorini qaytarib bergan edi* — 3:26-27, 24:26-27 ga qarang.

33:25 *...sizlar qoni chiqarilmagan go‘shtni tanovul qilasizlar...* — Tavrotda bunday go‘shtni yeyish qat’iyan man etilgan (Levilar 17:10-14 ga qarang).

34:12 *Bulutli, qorong‘i kun* — shoh Navuxadnazar Quddusni zabt etib, Quddus aholisini Bobilga surgun qilgan paytga ishora.

34:26 *Muqaddas tog‘im* — Quddusdagi Sion tog‘iga ishora. 17:23 izohiga qarang.

35:2 *Seir tog‘lari* — Edom yurtiga qarashli bo‘lgan tog‘li hudud. Mazkur oyatda butun Edom yurti nazarda tutilgan (shu bobning 15–oyatiga qarang).

36:13 *‘Isroil yurti o‘z odamlarini nobud qiladi, o‘z xalqini farzandlaridan judo qiladi’* — 5:14-17 ga qarang.

36:17 *...hayz ko‘rgan ayolday nopok edi* — Levilar 15:19 ga qarang.

37:5 *nafas* — bu o‘rindagi ibroniycha so‘z *ruh* va *shamol* ma’nolarini ham ifodalaydi (shu bobning 6, 8, 9, 10, 14–oyatlarida ham bor).

37:9 *shamol* — shu bobning 5–oyati izohiga qarang.

37:12 *qabrlaringiz* — xalqning Bobildagi surgun paytiga ishora.

37:14 *Ruh* — shu bobning 5–oyati izohiga qarang.

37:16 *«Yahudo shohligi»* — ibroniycha matnda *«Yahudo va Isroil xalqidan Yahudoga tegishli bo‘lganlar»*. Bu yerda Hizqiyol janubiy shohlikni nazarda tutgan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi YAHUDO so‘ziga qarang.

37:16 *«Isroil shohligi»* — ibroniycha matnda *«Yusuf va unga tegishli Isroil xalqidan bo‘lganlar, ya’ni Efrayimni bildiruvchi tayoq»*. Bu o‘rinda Hizqiyol shimoliy shohlikni nazarda tutgan. Yusufning o‘g‘li Efrayim — Efrayim qabilasining asoschisi bo‘lgan. Bu qabila Isroilning shimoliy qismidagi eng katta va nufuzli qabila bo‘lgani bois, Eski Ahdning ba’zi o‘rinlarida Efrayim degan nom Isroilga, ya’ni shimoliy shohlikka nisbatan ishlatilgan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi EFRAYIM so‘ziga qarang.

37:19 *Isroil shohligini bildiruvchi tayoq* — ibroniycha matnda *Yusufni va unga tegishli Isroil qabilalarini bildiruvchi tayoq, ya’ni Efrayimning qo‘lidagi tayoq*. Shu bobning 16–oyatiga berilgan ikkinchi izohga qarang.

37:23 *Men ularni sadoqatsizlik aybidan xalos etaman* — ko‘plab ibroniy qo‘lyozmalaridan va qadimiy yunoncha tarjimadan. Ibroniycha matnda *Ular gunoh qilib yashagan hamma maskanlardan Men ularni xalos qilaman*.

38:2 *Meshex va Tuval* — 27:13 ning ikkinchi izohiga qarang.

38:2 *Meshex va Tuval xalqlarining bosh hukmdori* — ibroniycha matndan. Qadimiy yunoncha tarjimada *Ro‘sh, Meshex va Tuval xalqlarining hukmdori*. Shu bobning 3–oyatida ham bor.

38:5 *Forslar, Habashistonliklar va Liviyaliklar* — ibroniycha matnda bu yurtlarning qadimgi nomlari: *Faras, Kush va Fut*. Kush degan joy Misrdan janubda bo‘lib, hozirgi Sudan va Efiopiya mamlakatlarining bir qismini o‘z ichiga olgan edi.

38:6 *Go‘mer xalqi* — bu xalq Qora dengizning shimoli–sharqida, hozirgi Rossiya hududida yashagan.

38:6 *To‘xarmo yurti* — bu yurt hozirgi Turkiya hududida joylashgan edi.

38:12 *jahon chorrahasi* — yoki *jahon cho‘qqisi*, ya’ni baland, xatarsiz joy ma’nosida kelgan.

38:13 *Shava va Dedon* — Arabiston yarim orolida joylashgan yurtlar.

38:13 *Tarshish* — hozirgi Ispaniyaning hududida joylashgan bu bandargoh shahar o‘zining katta va haybatli kemalari bilan mashhur edi. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi BANDARGOH so‘ziga qarang.

38:13 *zodagonlar* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *yosh arslonlar*.

39:1 *Meshex va Tuvalning bosh hukmdori* — ibroniycha matndan. Qadimiy yunoncha tarjimada *Ro‘sh, Meshex va Tuval hukmdori*.

39:25 *...Men Yoqub naslini yana farovonlikka erishtiraman* — yoki *...Men Yoqub naslini asirlikdan ozod qilib, ona yurtiga qaytarib olib kelaman*.

40:1 *Surgun bo‘lgan paytimizning yigirma beshinchi yili birinchi oyi* — miloddan oldingi 573 yilning birinchi oyi (1:1-3 ga va o‘sha oyatlarning oxirgi izohiga qarang). Ibroniy kalendarining Nison oyi nazarda tutilgan (Nison oyi Abib oyi deb ham ataladi). Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan martning o‘rtasidan boshlanadi.

40:5 *...har bir uzun tirsak bir tirsagu to‘rt enli edi* — bir tirsak taxminan 45 santimetrga, to‘rt en taxminan 8 santimetrga to‘g‘ri keladi. Demak, uzun tirsak taxminan 53 santimetrga to‘g‘ri keladi. Ushbu kitob davomida “tirsak” so‘zi uzun tirsakka nisbatan ishlatilgan. Hizqiyol vahiyda ko‘rgan Ma’badning loyihasi lug‘atdan keyin ilova qilingan “Rasmlar va loyihalar” bo‘limida berilgan.

40:17 *o‘ttizta hujra* — sajda qiluvchilar bu hujralarda yig‘ilib, qurbonlik go‘shtini tanovul qilishardi (misol uchun, Yeremiyo 35:2 ga qarang).

40:39 *gunoh qurbonligi* — birortasi bilmay qilgan gunohi uchun Xudodan kechirim so‘rab keltirgan qurbonligi. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi QURBONLIK so‘zi ostida berilgan GUNOH QURBONLIGI iborasiga qarang.

40:39 *ayb qurbonligi* — Levilar 5:14-19 ga qarang. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi QURBONLIK so‘zi ostida berilgan AYB QURBONLIGI iborasiga qarang.

40:44 *...ikkita xona qurilgan edi* — qadimiy yunoncha tarjimadan. Ibroniycha matnda *...qo‘shiqchilar uchun xonalar qurilgan edi*.

40:44 *janubiy* — qadimiy yunoncha tarjimadan. Ibroniycha matnda *sharqiy*.

40:48 *Ostonaning eni 14 tirsak, ostona yon devorlarining uzunligi 3 tirsak chiqdi* — qadimiy yunoncha tarjimadan (yana 41:1-3 ga qarang). Ibroniycha matnda *Ostonaning eni 14 tirsak* degan gap yo‘q.

40:49 *...eni 12 tirsak edi. Ayvonga o‘n pog‘onali zinapoya olib borar edi* — qadimiy yunoncha tarjimadan. Ibroniycha matnda *...eni 11 tirsak edi. Ayvonga zinapoya olib borar edi*.

41:1 *o‘sha odam* — 40:3 ga qarang.

41:1 *asosiy xona* — ya’ni Muqaddas xona.

41:1 *tirsak* — uzun tirsak nazarda tutilgan. Bir uzun tirsak taxminan 53 santimetrga to‘g‘ri keladi. 40:5 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

41:21 *kesaki* — eshik oʻrnatilgan chorchoʻp.

41:23 *Eng muqaddas xona* — yana ichki xona deb atalgan (shu bobning 4–oyatiga qarang).

42:1 *oʻsha odam* — 40:3 ga qarang.

42:2 *tirsak* — uzun tirsak nazarda tutilgan. Bir uzun tirsak taxminan 53 santimetrga toʻgʻri keladi. 40:5 ga va oʻsha oyatning izohiga qarang.

42:3 *eni 20 tirsak boʻlgan ichki hovlining ochiq joyi* — 41:9-10 ga qarang.

42:3 *Ma'badning tosh yotqizilgan tashqi hovlisi* — 40:17 ga qarang.

42:4 *100 tirsak* — qadimiy yunoncha va suryoniycha tarjimalardan. Ibroniycha matnda *1 tirsak*.

42:10 *Janub* — qadimiy yunoncha tarjimadan. Ibroniycha matnda *Sharq*.

43:1 *Oʻsha odam* — 40:3 ga qarang.

43:1 *sharqiy darvoza* — Ma'badning old tomonida joylashgan.

43:3 *koʻrgan vahiylarim* — 1:1-28, 9:1-10:22, 11:22-25 ga qarang.

43:13 *...har bir uzun tirsak bir tirsagu toʻrt enni tashkil qilib...* — bir tirsak taxminan 45 santimetrga, toʻrt en taxminan 8 santimetrga toʻgʻri keladi. Demak, uzun tirsak taxminan 53 santimetrga toʻgʻri keladi. Hizqiyol kitobining davomida "tirsak" soʻzi uzun tirsakka nisbatan ishlatilgan.

43:24 *tuz* — oʻzgarmaslik ramzi boʻlib, Xudo va Uning xalqi orasidagi ahdning barqarorligini bildiradi (Levilar 2:13 ga va oʻsha oyatning izohiga qarang).

44:1 *Oʻsha odam* — 40:3 ga qarang.

44:7 *...yuragi...sunnat qilinmagan...* — ya'ni Xudoga chin yurakdan sadoqatli va itoatkor boʻlmagan (Yeremiyo 4:4 ga va oʻsha oyatning izohiga qarang).

44:19 *...toki xalq muqaddas kiyimlarga qoʻl tekkizmasin* — Ma'badning muqaddasligiga boʻlgan yuksak ehtiromni saqlash maqsadida oddiy xalq Ma'baddagi muqaddas ashyolarga qoʻl tekkizmasligi kerak edi. Tabarruk ashyolarga qoʻl tekkizgan odam oʻzini oʻzi jazoga mahkum etardi (Sahroda 4:15, 1 Shohlar 6:19, 2 Shohlar 6:6-7 ga qarang).

45:1 *tirsak* — uzun tirsak nazarda tutilgan. Bir uzun tirsak taxminan 53 santimetrga toʻgʻri keladi. 43:13 ga va oʻsha oyatning izohiga qarang.

45:1 *20.000 tirsak* — qadimiy yunoncha tarjimadan (yana shu bobning 3-5–oyatlariga va 48:9-13 ga qarang). Ibroniycha matnda *10.000 tirsak*.

45:5 *Ular yashaydigan shaharlar shu yerda joylashadi* — qadimiy yunoncha tarjimadan. Ibroniycha matnda *Ularning oʻzlariga 20 xona ajratiladi*.

45:10 *...toʻgʻri oʻlchovni...* — ibroniycha matndan soʻzma–soʻz tarjimasi *...toʻgʻri efani va toʻgʻri batni...* (shu bobning 11–oyatiga va oʻsha oyatning izohiga qarang).

45:11 *...efa...bat...hoʻmr...* — qadimda hajmni oʻlchash uchun ishlatilgan oʻlchov birliklari. Efa ham, bat ham taxminan 22 litrga, hoʻmr esa 220 litrga toʻgʻri keladi.

45:12 *Bir shaqal 20 geraga, bir mina 60 shaqalga toʻgʻri kelsin* — qadimda ogʻirlikni oʻlchash uchun shaqal, gera va mina oʻlchov birliklaridan foydalanilgan. Mina 50

shaqalga to‘g‘ri kelardi, biroq bu vaziyatda Bobildagi o‘lchov birliklari ishlatilgan bo‘lishi mumkin. 20 gera taxminan 11 grammga, 60 shaqal taxminan 660 grammga to‘g‘ri keladi.

45:13 *...oltmishdan bir qismi* — ibroniycha matnda *...har bir ho‘mrdan efaning oltidan bir qismi* (shu oyatning davomida ham bor). Shu bobning 11–oyatiga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

45:14 *...bir foizi* — ibroniycha matnda *...har bir kordan batning oltidan bir qismi*. Qadimda *kor* suyuqliklarning o‘lchov birligi bo‘lib, hajmi bir ho‘mrga, ya’ni 220 litrga to‘g‘ri kelardi.

45:14 *O‘n bat...bir ho‘mr...* — shu bobning 11–oyatiga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

45:18 *Birinchi oy* — ibroniy kalendarining Nison oyi nazarda tutilgan (Nison oyi Abib oyi deb ham ataladi). Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan martning o‘rtasidan boshlanadi.

45:19 *kesaki* — eshik o‘rnatilgan chorcho‘p.

45:21 *...Fisih ziyofati...Xamirturushsiz non bayrami...* — Isroil xalqining Misrdagi qullikdan ozod bo‘lganini nishonlash uchun o‘tkazilardi (Chiqish 12:1-42, 13:3-10 ga qarang).

45:24 *bir tog‘ora* — ibroniycha matnda *bir efa*, taxminan 22 litrga to‘g‘ri keladi.

45:24 *sakkiz kosa* — ibroniycha matnda *bir xin*, taxminan 4 litrga to‘g‘ri keladi.

45:25 *Yettinchi oy* — ibroniy kalendarining Tishri oyi nazarda tutilgan (Tishri oyi Itanim oyi deb ham ataladi). Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan sentabrning o‘rtasidan boshlanadi.

45:25 *Chayla bayrami* — bu bayram kuzda yig‘im–terim tugagan paytga to‘g‘ri keladi.

46:5 *bir tog‘ora* — ibroniycha matnda *bir efa*, taxminan 22 litrga to‘g‘ri keladi.

46:5 *sakkiz kosa* — ibroniycha matnda *bir xin*, taxminan 4 litrga to‘g‘ri keladi.

46:14 *olti kosa* — ibroniycha matnda *efaning oltidan bir qismi*, taxminan 3,7 litrga to‘g‘ri keladi.

46:14 *uch kosa* — ibroniycha matnda *xinning uchdan bir qismi*, taxminan 1,3 litrga to‘g‘ri keladi.

46:17 *Qutlug‘ yil* — Isroil xalqi tabarruk deb bilgan yil. Shu yil davomida hamma mulk o‘zining asl egalariga qaytarib berilishi kerak edi (Levilar 25:8-55, 27:17-24 ga qarang).

46:19 *o‘sha odam* — 40:3 ga qarang.

46:19 *So‘ng o‘sha odam meni...boshlab bordi* — Hizqiyol Ma’bad oldidan shimoldagi darvoza tomon yurib (44:4 ga qarang), darvozadan chiqqandan keyin g‘arbga burildi.

46:20 *...xalq muqaddas nazrlarga qo‘l tekkizmasligi uchun...* — 44:19 izohiga qarang.

46:22 *tirsak* — uzun tirsak nazarda tutilgan. Bir uzun tirsak taxminan 53 santimetrga to‘g‘ri keladi. 43:13 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

47:1 *O‘sha odam* — 40:3 ga qarang.

47:3 *tirsak* — uzun tirsak nazarda tutilgan. Bir uzun tirsak taxminan 53 santimetrga

to‘g‘ri keladi. 43:13 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

47:8 *Iordan vodiysi* — ibroniycha matnda *Araba*. Araba umumiy geografik nom bo‘lib, bu oyatda Iordan vodiysiga nisbatan ishlatilgan.

47:10 *...En–Gedidan En–Exlayimgacha...* — O‘lik dengizning g‘arbiy qirg‘og‘i, qirg‘oqning o‘rtasidan to shimoli–g‘arbgacha bo‘lgan qism.

47:10 *O‘rta yer dengizi* — ibroniycha matnda *Buyuk dengiz* (shu bobning 15, 17, 19, 20–oyatlarida ham bor).

47:13 *Yusuf avlodlari* — Efrayim va Manashe qabilalari nazarda tutilgan. Bu qabilalar Yusufning ikkita o‘g‘lidan kelib chiqqan.

47:15 *Levo–Xomat* — yoki *Xomat dovoni* (shu bobning 20–oyatida ham bor).

47:15-16 *...so‘ng Levo–Xomat orqali o‘tib, Zadod shahrigacha davom etadi. 16 Keyin Damashq va Xomat oralig‘idagi...* — qadimiy yunoncha tarjimadan (yana 48:1 ga qarang). Ibroniycha matnda *...so‘ng Zadod shahriga olib boradigan yo‘l bo‘ylab davom etadi. 16 Keyin Xomat, Damashq va Xomat oralig‘idagi...*.

47:19 *Misr chegarasidagi irmoq* — Sinay yarim orolining shimoli–sharqidagi Arish soyligi yoki Nil daryosining sharqiy irmog‘i nazarda tutilgan (yana Ibtido 15:18, Sahroda 34:5 va Yoshua 13:3, 15:4, 47 ga qarang).

47:22 *...qur’a bo‘yicha...* — qur’a tashlashda yog‘och bo‘laklari yoki toshlar ishlatilgan bo‘lib, shu orqali Xudoning xohish–irodasi aniqlangan. Ba’zan odamlar qur’a tashlab, Xudodan biror ishni qanday yoki qachon qilish kerakligini so‘rashgan.

48:1 *Levo–Xomat* — yoki *Xomat dovoni*.

48:8 *tirsak* — uzun tirsak nazarda tutilgan. Bir uzun tirsak taxminan 53 santimetrga to‘g‘ri keladi. 43:13 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

48:9 *20.000 tirsak* — qadimiy yunoncha tarjimaning bitta qo‘lyozmasidan (yana shu bobning 10-13–oyatlariga va 45:1-5 ga qarang). Ibroniycha matnda *10.000 tirsak*.

48:13 *20.000 tirsak* — shu bobning 9–oyati izohiga qarang.

48:28 *Misr chegarasidagi irmoq* — 47:19 izohiga qarang.

48:28 *O‘rta yer dengizi* — ibroniycha matnda *Buyuk dengiz*.

DONIYOR

PAYG‘AMBARNING KITOBI

Kirish

Mazkur kitobning bosh qahramoni Doniyor payg‘ambardir. U ibroniy zodagonlarining oilasida tavallud topib, ulg‘ayadi va miloddan oldingi 605 yilda boshqa asirlar qatorida shoh Navuxadnazar tomonidan Bobilga surgun qilinadi. Doniyor Bobil shohining saroyida xizmat qila boshlaydi. Miloddan oldingi 539 yilda Midiya va Fors qo‘shinlari Bobil taxtini egallaganlaridan keyin ham, Doniyor saroydagi xizmatini davom ettiradi.

Kitobning birinchi qismida (1-6–boblar) muallif bizga o‘spirin Doniyorni va uning uch do‘stini tanishtiradi, ularning tirishqoqligi, iste’dodi va diyonati haqida so‘z yuritib, Bobil saroyida yuz bergan hodisalar haqida bizni boxabar qiladi. Shuningdek, jahon xalqlarining taqdiri va Xudoning abadiy hukmronligi haqida so‘z yuritadi. Ushbu kitobda Doniyor va uning uch do‘sti Bobil hukumatida yuksak obro‘–e’tiborga ega bo‘lganlari haqida hikoya qilinadi. Ularning hayoti bir necha marta xavf ostida qoladi, shunga qaramay, ular Xudoga oxirigacha sodiq qolishadi. Bobil shohligi birlashgan Midiya va Fors shohligiga mag‘lub bo‘lgandan keyin, Doniyorning yangi hukumatga xizmat qilishi ham kitobning shu qismida bayon qilinadi.

Kitobning ikkinchi qismi (7-12–boblar) Doniyorga kelgan vahiylardan va farishta unga aytgan vahiy ta’birlaridan tashkil topgan. Bu vahiylarda jahon xalqlarining taqdiri, yahudiy xalqining kelajagi va Xudoning abadiy hukmronligi haqida so‘z yuritiladi. Kelajakda tarix sahnasiga chiqadigan buyuk imperiyalarning hukmronligi va yahudiylar ularga tobe bo‘lishi majoziy ma’noda bayon qilinadi. Hozirda biz o‘tmishga nazar tashlab, bu vahiylarning aksariyat qismi amalga oshgan, deb ishonch bilan ayta olamiz.

Xullas, kitobning asosiy g‘oyasi quyidagilardan iborat: insoniyat taqdirini Xudo boshqaradi. Xudo shohliklarni qudratli qiladi, vaqti kelganda esa ularni mag‘lub qiladi. Tarix sahnasiga chiqqan buyuk Bobil va Fors imperiyalari, yengilmas Iskandar Zulqarnayn hokimiyati va Rim hukmronligi keldi–yu–ketdi, Xudoning O‘z xalqi orqali o‘rnatgan samoviy shohligi esa abadiy barqaror turibdi.

Doniyor va uning do‘stlari boshidan o‘tgan voqealar

(1:1-6:28)

1–BOB

O‘spirinlar shoh Navuxadnazar saroyida

1 Yahudo* shohi Yohayiqim hukmronligining uchinchi yilida* Bobil shohi
Navuxadnazar Quddusga qo‘shin tortib kelib, shaharni qamal qildi. 2 Rabbiy
Yohayiqimni Navuxadnazarning qo‘liga berdi*. Navuxadnazar Xudoning uyidagi ayrim
idishlarni o‘lja qilib, Bobil* yurtiga olib bordi–da, idishlarni o‘z xudosining uyidagi

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

xazinaga joylashtirdi.

3 U saroyning bosh mulozimi* Ashnapazga shunday buyruq bergan edi: “Isroil
xalqidan olingan asirlardan shoh va zodagonlarning oilalariga mansub bo‘lgan
4 yigitlarni olib kel. Ular yosh, jismonan sog‘lom, xushqomat, zehni o‘tkir, qobiliyatli,
farosatli, xullas, shoh saroyida xizmat qilishga layoqatli bo‘lishsin. Sen ularga bobil
tilini* va adabiyotini o‘rgatishing kerak. 5 Har kungi yegulik bilan sharob ularga mening
dasturxonimdan berilsin. Ular uch yil ta’lim olishgach, mening huzurimda hozir
bo‘lishlari lozim.”

6 Tanlanganlarning orasida Yahudo qabilasidan bo‘lgan Doniyor, Xanoniyo, Mishail
va Ozariyo ismli o‘spirinlar bor edi. 7 Bosh mulozim ularning ismlarini o‘zgartirib,
Doniyorni — Beltashazar, Xanoniyoni — Shadrax, Mishailni — Meshax, Ozariyoni esa
Abednaxu deb atadi.

8 Doniyor shohona yegulik va sharobdan bulg‘anishni xohlamadi*. Bu taomlardan u
voz kechmoqqa ahd qilib, bosh mulozimdan buning uchun ijozat so‘radi. 9 Xudoning
irodasi bilan Doniyor bosh mulozimning muruvvatiyu iltifotiga sazovor bo‘lgan edi.
10 Ammo bosh mulozim Doniyorning taklifini eshitib lol qoldi va dedi: “Yo‘q, yegulik
bilan ichimliklarni sizlarga* shoh hazratlarining o‘zlari belgilaganlar. Hazratimning
buyruqlaridan bosh tortishdan qo‘rqaman. Bordi–yu, ko‘rinishlaring
tengdoshlaringnikidan yomonroq bo‘lsa, mening jonimni xavf ostiga qo‘ygan
bo‘lasizlar.”

11 Keyin Doniyor bu masala xususida bosh mulozim tayinlagan soqchi bilan
gaplashdi, chunki bu soqchi Doniyor va uning uch og‘aynisi uchun mas’ul bir odam edi.
U soqchiga shunday dedi: 12 “Iltimos, qullaringizni o‘n kun davomida sinab ko‘ring. Bizga
yegani sabzavot, ichgani suv bering. 13 Keyin esa bizni shohona yegulikni yegan yigitlar
bilan solishtirib ko‘ring, so‘ng bilganingizni qilavering.”

14 Soqchi rozi bo‘lib, ularni o‘n kun davomida sabzavotlar bilan boqdi. 15 O‘n kun
o‘tgach, ularning gavdalari to‘lishib, shohona yegulik yegan boshqa yigitlardan ancha
ko‘rkam bo‘ldi. 16 Shunday qilib, soqchi ularning shohona yeguliklari va sharobini o‘ziga
olib qolib, ularga faqat sabzavotlar beradigan bo‘ldi.

17 Xudo bu to‘rtta yigitga adabiyot va falsafaning har sohasini fahmlamoq uchun
bilim va iste’dod bergan edi. Bundan tashqari, Doniyor turli xil vahiy va tushlarni
ta’birlash qobiliyatiga ega edi.

18 Shoh belgilagan muddat tugagach, bosh mulozim hamma yigitlarni Navuxadnazar
huzuriga olib bordi. 19 Shoh ularning har biri bilan suhbatlashdi. Ular orasida hech kim
Doniyor, Xanoniyo, Mishail va Ozariyoga teng kela olmasdi. Shuning uchun shoh ularni
o‘z saroyida olib qoldi. 20 Shoh qanday savol bermasin va qanday jumboqni yechishni
so‘ramasin, ularning bilimi va donoligi butun shohlikdagi folbinu munajjimlarnikidan
o‘n barobar ziyoda edi. 21 Doniyor saroyda shoh Kurush hukmronligining birinchi
yiligacha* xizmat qildi.

2–BOB

Navuxadnazarning tushi

1 Navuxadnazar o‘z hukmronligining ikkinchi yilida* bir tush ko‘rdi. Bu tush uni shu
qadar bezovta qilib yubordiki, ko‘ziga boshqa uyqu kelmadi. 2 Shoh tushining ta’birini

bilish uchun qo‘li ostidagi barcha folbin, munajjim, sehrgar va afsungarlarni* chaqirtirdi. Ular shoh huzurida hozir bo‘lganlarida, 3 shoh ularga shunday dedi:

— Men g‘alati bir tush ko‘rdim. Yuragimga g‘ulg‘ula solgan bu tushning ta’birini bilmoqchiman.

4 Ular shohga oramiy tilida dedilar*:

— Shoh hazratlarining umri boqiy bo‘lsin! Shoh hazratlari avval tushlarini aytsinlar, bu qullaringiz uni ta’birlashga tayyordirlar.

5 — Bilib qo‘yinglar, — dedi ularga shoh. — Agar menga tush va uning ta’birini aytib bermasangiz, men tanalaringizni bo‘lak–bo‘lak qildirib, sizlarni jazolayman, uylaringizni esa vayron qilib, bir uyum toshga aylantiraman. 6 Bordi–yu, tushimni aytib, uni ta’birlab bersangiz, sizlarga in’omu mukofotlar berib, izzat–ikrom ko‘rsataman. Qani, endi menga ko‘rgan tushimni va uning ta’birini aytib beringlar!

7 Ular shohga ikkinchi marta dedilar:

— Shoh hazratlari avval tushlarini aytsinlar, kaminalaringiz uni ta’birlashga tayyordirlar.

8 — Sizlar qarorim qat’iy ekanini ko‘rib, vaqtni cho‘zmoqchisizlar, — dedi shoh. — Buni aniq bilib turibman. 9 Agar tushimni aytib bermasangizlar, hammangizga jazo bitta! Sizlar meni laqillatib, vaziyat o‘zgarguncha vaqtni cho‘zishga kelishib olgansizlar. Tushni menga aytib beringlar, shunda uni ta’birlay olishingizni ham bilaman.

10 — Yer yuzida shohning bu talabini qondiradigan bironta jon bormikan?! — deya ajablandilar ular. — Shuhrati ro‘yi zaminga yoyilgan shohlarning birontasi ham bunday narsani na folbin, na munajjim, na afsungardan talab qilgan. 11 Shoh hazratlari bizdan imkonsiz bir narsani talab qilyaptilar. Buni shohga foniy bandalar dunyosidan yiroq yashaydigan xudolardan boshqa hech kim ochib berolmaydi.

12 Darg‘azab bo‘lgan shoh: “Bobildagi barcha saroy maslahatchilari qatl qilinsin!” — deb farmon berdi. 13 Farmon e’lon qilindi. Saroy maslahatchilari qatl qilinish arafasida edi. Doniyor va uning o‘rtoqlari ham qatl qilinishlari kerak edi.

Navuxadnazarning tushi Doniyorga oshkor bo‘ladi

14 Shoh soqchilarining boshlig‘i Oriyox saroy maslahatchilarini qatl qilmoq uchun yo‘lga chiqqanda, Doniyor uning oldiga borib, ehtiyotkorlik bilan murojaat qilib: 15 “Ey Oriyox hazratlari, nima bois shoh bunday shoshilinch* farmon chiqardilar?” — deb so‘radi. Shunda Oriyox bo‘lib o‘tgan voqeani unga birma–bir so‘zlab berdi. 16 Doniyor shosha–pisha shoh huzuriga kirib, tushning ta’birini topmoq uchun hazratlaridan muhlat so‘radi. 17 So‘ng uyga borib, bo‘lib o‘tgan voqeani sheriklari Xanoniyo, Mishail va Ozariyolarga aytib berdi: 18 “Saroy maslahatchilari bilan birga halok bo‘lmasligimiz uchun, Samoviy Xudoga iltijo qilinglar. U bizga rahm qilib, bu sirni ochib berishini so‘ranglar.”

19 O‘sha kecha Doniyorga bu sir vahiy orqali oshkor bo‘ldi va Doniyor Samoviy Xudoga hamdu sanolar aytdi:

20 “Xudoyimiz dono va qudratlidir,
Asrlar osha Uning nomi ulug‘lansin!
21 U zamon va davrlarni o‘zgartirar,
Shohlarni taxtdan tushirib taxtga o‘tqazar.
Donishmandlarga donolik,

Oqilu fozillarga bilim berar.
22 Pinhon saqlangan sirlarni ochar,
Zulmatda yashiringan narsalarni bilar,
Yorug‘lik Uning dargohida maskan topar.
23 Ey ota–bobolarimning Xudosi,
Senga shukurlar aytaman, madhlar kuylayman,
Zero, donoligu qudratni menga bergan Sensan,
Istagan narsamni menga ochgan Sensan,
Shoh tushini bizga oshkor qilgan Sensan.”

Doniyor shohga tush bilan uning ta’birini aytadi

24 Doniyor saroy maslahatchilarini qatl qilish uchun shoh tomonidan tayinlangan Oriyoxning oldiga borib:

— Hazratim, saroy maslahatchilarining jonlariga zinhor qasd qilmang, — dedi. — Meni darhol shoh huzuriga olib kiring, men shoh hazratlari ko‘rgan tushni ta’birlab beraman.

25 Oriyox zudlik bilan Doniyorni shoh huzuriga olib kirib:

— Ey olampanoh, kaminangiz Yahudo asirlari orasidan tushingizni ta’birlab beradigan bir odamni topib keldi, — dedi.

26 Shoh Doniyorga yuzlanib (Doniyorning boshqa ismi Beltashazar edi*):

— Sen menga ko‘rgan tushimni hamda uning ta’birini aytib bera olasanmi? — dedi.

27 Doniyor shohga shunday javob berdi: “Ey hazrati oliylari, na saroy maslahatchisi, na munajjim, na folbin, na rammol* buning uddasidan chiqa oladi. 28 Lekin samoda shu kabi, sirlarni oshkor qila oladigan bir Xudo bordir. U sizga, ey shoh hazratlari, oxiratda bo‘ladigan narsalarni ayon qilmoqchi. Siz tushingizda ko‘rgan vahiy quyidagicha edi:

29 Ey olampanoh, siz uxlab, kelajak haqida bir tush ko‘rdingiz. Bu tush orqali sirlarni oshkor qiluvchi Xudo sizga kelajakda ro‘y beradigan narsalarni ayon qildi. 30 Bu sirning menga ochilganligi esa donoligim boshqalarnikidan ziyoda bo‘lgani uchun emas, balki shohanshohim ko‘rgan tushining ta’birini bilib, uning ma’nosini tushunishlari uchundir.

31 Ey shoh hazratlari, tushingizda siz bahaybat bir haykal ko‘rdingiz. Oldingizda turgan o‘sha ulkan haykalning ko‘rinishi nihoyatda yarqiroq va qo‘rqinchli edi.
32 Haykalning boshi toza oltindan, ko‘krak va qo‘llari kumushdan, beli va sonlari bronzadan, 33 boldirlari temirdan, oyoqlarining bir qismi loydan, bir qismi temirdan edi.
34 Unga qarab turganingizda, tog‘dan o‘z–o‘zidan* uzilgan bir tosh dumalab kelib haykalning loy va temirdan bo‘lgan oyoqlariga urildi–da, ularni parcha–parcha qildi.
35 Temir, loy, bronza, kumush va oltin parchalanib, yozgi xirmonlardagi to‘ponday bo‘ldi. Shamol ularni uchirib ketib, hech bir asar qoldirmadi. Haykalga urilgan tosh esa katta tog‘ bo‘lib, butun yer yuzini qopladi.

36 Bu siz ko‘rgan tush edi. Endi esa shoh hazratlari tushining ta’birini eshitsinlar.
37 Ey shoh hazratlari, siz kabi buyuk hukmdorni dunyo hali ko‘rmagan. Samoviy Xudo sizga saltanat, kuch–qudrat va shon–shuhrat ato qilgandir. 38 U sizga yerda yashovchi barcha insonlarni, hatto dashtdagi yovvoyi hayvonlaru osmonda uchuvchi qushlarni tobe qilgan, ular ustidan hukmronligingizni mustahkam o‘rnatgan. Tilla bosh — sizsiz.
39 Ammo sizdan keyin jahon sahnasiga boshqa buyuk bir shohlik chiqadi. Bu shohlik siznikidan zaifroq bo‘ladi. So‘ng haykalning bronza beli va sonlari bilan ifodalangan

uchinchi shohlik hukmronlik qiladi. 40 Undan keyin temirday qattiq to‘rtinchi shohlik
bo‘ladi. Temir hamma narsani sindirib yo‘q qilganiday, o‘sha shohlik ham undan oldingi
shohliklarni buzib, yo‘q qiladi. 41 Siz haykalning oyoqlari va oyoq barmoqlarining bir
qismi loydan, bir qismi temirdan ekanligini ko‘rdingiz, bu bo‘lingan shohlik bo‘ladi. Loy
bilan temir birga qorilgani uchun bu shohlikda bir oz temirning kuchi bo‘ladi. 42 Shohlik
ayrim jihatdan kuchli, ayrim jihatdan zaif bo‘ladi. 43 Temir bilan loyning qorishmasi yana
shundan dalolat beradiki, o‘sha zamon hukmdorlari quda–andachilik yo‘li bilan
shohliklarini mustahkam qilmoqchi bo‘ladilar, ammo temir loy bilan qovushmagani
kabi, ular ham bir–biri bilan qovusha olmaydilar. 44 O‘sha shohlarning davrida Samoviy
Xudo bitmas–tuganmas bir shohlik o‘rnatadi. Hech kim uni yenga olmaydi. Bu shohlik
boshqa barcha shohliklarni yer bilan yakson qilib, o‘zi abadiy turadi. 45 Tog‘dan o‘z–
o‘zidan dumalab tushib, temir, bronza, loy, kumush va oltinni parchalab tashlagan tosh
o‘sha shohlikning ifodasidir. Buyuk Xudo sizga, ey shoh hazratlari, kelajakda sodir
bo‘ladigan narsalarni ayon qildi. Siz ko‘rgan tushingiz haqiqatan ham karomatli, ta’biri
esa ro‘yirostdir*.”

Shoh Navuxadnazar Doniyorni taqdirlaydi

46 Shoh Navuxadnazar muk tushib Doniyorga sajda qildi. So‘ng odamlariga Doniyor
oldida nazrlar keltirib, xushbo‘y tutatqilar tutatishni buyurdi. 47 Shoh Doniyorga dedi:

— Chindan ham sening Xudoying sirlarni oshkor qiluvchi eng buyuk Xudodir, U
shohlarning haqiqiy Egasidir, chunki bu sirni menga faqat sen oshkor qila olding!

48 Shoh Doniyorni yuqori mansabga ko‘tarib, ko‘pdan–ko‘p in’omlar taqdim qildi, uni
Bobil viloyatining hokimi va saroy maslahatchilarining boshlig‘i qilib tayinladi.
49 Doniyorning iltimosiga binoan shoh Bobil viloyatining boshqaruvini Shadrax, Meshax
va Abednaxuga topshirdi. Doniyorning o‘zi esa shoh saroyida xizmat qilib qoldi.

3–BOB

Navuxadnazar yasattirgan oltin haykal

1 Shoh Navuxadnazar sof oltindan ulkan bir haykal yasattirdi. Balandligi oltmish
tirsak, eni esa olti tirsak* bo‘lgan bu haykal Bobil viloyatidagi Durax tekisligida*
o‘rnatildi. 2 So‘ng qo‘li ostidagi barcha noiblar, hokimlar, beklar, a’yonlar, xazinabonlar,
qozilar, ma’murlar va viloyatlarning amaldorlarini chaqirtirib, o‘rnatgan haykalning
ochilishida qatnashishlarini buyurdi. 3 Bu barcha amaldorlar* shoh Navuxadnazar
o‘rnatgan haykalning ochilishiga yig‘ilganlarida, 4 jarchi baland ovozda shunday e’lon
qildi: “Ey barcha xalqlar, elatlar va urug‘lar! 5 Hozir sozandalarimiz karnay, nay, lira,
chang, arfa, doira va boshqa cholg‘u asboblarini chaladilar, sizlar esa muk tushib shoh
Navuxadnazar o‘rnatgan oltin haykalga sajda qilasizlar. 6 Kimki muk tushib sajda
qilmasa, o‘sha zahotiyoq olovli chuqurlikka tashlanadi.” 7 Cholg‘u asboblarining*
sadolarini eshitgach, barcha xalqlar, elatlar va urug‘lar muk tushib, shoh Navuxadnazar
o‘rnatgan haykalga sajda qildilar.

Doniyorning uch og‘aynisi itoatsizlikda ayblanadi

8 Yahudiylarni qoralash niyatida yurgan ayrim Bobilliklar* uchun qulay bir vaziyat
tug‘ilgan edi. Bunday fursatni boy bermaslik uchun 9 ular shoh Navuxadnazarga
shunday dedilar: “Shoh hazratlarining umri boqiy bo‘lsin! 10 Ey shoh hazratlari, siz

bergan amringizga binoan cholg‘u asboblarining sadolarini eshitgan har bir odam muk tushib oltin haykalga sajda qilishi kerak edi, shunday emasmi? 11 Siz, amrimga itoat qilmagan har qanday kishi olovli chuqurlikka tashlanadi, deb aytgan edingiz. 12 Ammo ayrim yahudiylar, xususan, siz Bobil viloyatiga hokim qilib tayinlagan Shadrax, Meshax va Abednaxu shoh hazratlarining amriga bo‘ysunmadilar. Bu odamlar xudolaringizga sig‘inmaydilar, ular hatto siz o‘rnatgan oltin haykalga sajda qilishni ham o‘zlariga ep ko‘rmadilar.”

13 Bu xabardan g‘azablanib ketgan Navuxadnazar Shadrax, Meshax va Abednaxuni o‘z huzuriga keltirishni buyurdi. Ular shoh huzuriga keltirilganda, 14 Navuxadnazar ularga dedi:

— Shadrax, Meshax va Abednaxu, sizlar mening xudolarimga sig‘inmaganingiz va men o‘rnatgan oltin haykalga sajda qilmaganingiz to‘g‘risida xabar topdim. 15 Ammo men sizlarga lutf aylab yana bir imkoniyat beraman. Hozir cholg‘u asboblarining sadolarini eshitishingiz bilanoq, muk tushib men o‘rnatgan haykalga sajda qilasizlar. Aks holda, o‘sha zahotiyoq olovli chuqurlikka tashlanasizlar. Shunda sizlarni mening qo‘limdan bironta xudo ham qutqara olmaydi!

16 Shadrax, Meshax va Abednaxu shohga shunday javob berishdi:

— Ey olampanoh, bu masalada biz o‘zimizni oqlamoqchi emasmiz. 17 Biz sig‘inadigan Xudo bizni olovli chuqurlikdan ham, sizning qo‘lingizdan ham qutqarishga qodir. 18 Ammo U bizni qutqarmagan taqdirda ham, bilib qo‘yingki, ey shoh hazratlari, biz hech qachon xudolaringizga sig‘inmaymiz, siz o‘rnatgan oltin haykalga ham sajda qilmaymiz.

Doniyorning uch og‘aynisi o‘limga mahkum qilinadi

19 Shadrax, Meshax va Abednaxuning bunday javobi Navuxadnazarning qonini qaynatdi. Uning afti–basharasi burishib ketdi. U olovni odatdagidan yetti barobar qattiqroq yondirishni buyurdi. 20 So‘ng lashkari orasidagi eng kuchli polvonlarga Shadrax, Meshax va Abednaxuni bog‘lab, olovli chuqurlikka tashlashni amr qildi. 21 Polvonlar ularni bog‘lab, ustki kiyimi, ishtoni, bosh kiyimi, xullas, butun ust–boshi bilan olovli chuqurlikka tashladilar. 22 G‘azablangan shoh qattiq olov yondirishni buyurgani uchun, alanga avjiga chiqqan edi. Olovning tafti uch og‘aynini chuqurlikka tashlayotgan polvonlarni kuydirib yubordi. 23 Shadrax, Meshax va Abednaxu esa bog‘langan holda olovli chuqurlikka yiqildilar.

24 Buni tomosha qilib turgan shoh Navuxadnazar birdaniga o‘rnidan sapchib turdi–da, hayrat ichra maslahatchilariga:

— Chuqurlikka biz uchta bog‘langan odamni tashlamaganmidik? — deb hayqirib yubordi.

— Xuddi shunday, shoh hazratlari, — deb javob berdi ular.

25 — Voajabo! Alanganing o‘rtasida bog‘lanmagan to‘rtta odam yuribdi–ku, — dedi shoh. — Ularning birortasiga ham zarar yetmagan. To‘rtinchi kimsa xuddi ilohiy zotga* o‘xshaydi–ya!

Uchala yigit ozod qilinib, yuqori lavozimga ko‘tariladi

26 Navuxadnazar chuqurlikning og‘ziga borib:

— Shadrax, Meshax va Abednaxu, ey Xudoyi Taoloning xizmatkorlari, qani, chiqinglar! Oldimga kelinglar! — deb baqirdi.

Shadrax, Meshax va Abednaxu alanga orasidan chiqishdi. 27 Barcha noiblar,

hokimlar, beklar va shoh a’yonlari Shadrax, Meshax va Abednaxuni o‘rab olib, olov o‘sha odamlarga hech qanday ziyon yetkazmaganligini ko‘rishdi. Ularning na sochlari kuygan, na ustki kiyimlariga zarar yetgan, ulardan hatto tutun hidi ham kelmas edi.

28 Navuxadnazar dedi: “Shadrax, Meshax va Abednaxuning Xudosiga hamdu sanolar bo‘lsin! U O‘z farishtasini yuborib, O‘ziga inongan qullarini xalos qildi. Ular o‘z Xudosidan boshqa bo‘lgan xudolarga sig‘inishdan ko‘ra, o‘limni ravo ko‘rdilar, shu bois shohning amriga ham bo‘ysunmadilar.

29 Shuning uchun farmonim quyidagichadir: Shadrax, Meshax va Abednaxuning Xudosiga shak keltirgan har bir odam qaysi xalq, elat yoki uruqqa mansub bo‘lishidan qat’i nazar, chopib tashlanadi, uning uyi esa vayron qilinadi. Zero, bunday najot beradigan boshqa xudo yo‘qdir.”

30 Keyin shoh Shadrax, Meshax va Abednaxuning martabasini yanada oshirib, ularni Bobil viloyatidagi yuqori lavozimlarga ko‘tardi.

Navuxadnazarning maktubi

31 Shoh Navuxadnazar yer yuzidagi barcha xalqlar, elatlar va urug‘larga quyidagi xabarni yubordi:

Xonadoningizdan baraka arimasin! 32 Xudoyi Taolo menga ko‘rsatgan
alomatu mo‘jizalari haqida sizlarni xabardor qilmoqchiman.

33 Naqadar buyukdir Uning alomatlari!
Naqadar qudratli mo‘jizalari!
Uning shohligi — mangu shohlik bo‘lar,
U abadiy hukmronlik qilar.

4–BOB

Navuxadnazarning daraxt haqidagi tushi

1 Men, Navuxadnazar, o‘z uyimda xotirjam, shohona saroyimda rohat–
farog‘atda yashayotgan edim. 2 Ammo bir kuni kechasi ko‘rgan tushim yuragimga
allaqanday vahima soldi. Bu tushim meni dahshatga tushirgan edi. 3 Men
tushimning ta’birini bilishni istab, Bobildagi hamma saroy maslahatchilarini
huzurimga keltirishni buyurdim. 4 Qarshimda hozir bo‘lgan folbin, munajjim,
afsungar* va rammollar* tushimni eshitdilar–u, ammo uni ta’birlay olmadilar.
5 Nihoyat, Doniyor keldi (uning Beltashazar degan ismi* men sig‘inadigan
xudoning ismi bilan hamohangdir*). Doniyor muqaddas xudolarning ruhi* bilan
to‘ladir. Men unga tushimni aytib berdim: 6 “Ey Beltashazar, folbinlarning
boshlig‘i, senda muqaddas xudolarning ruhi* borligi menga ayon, har qanday sir
senga oshkordir. Ko‘rgan tushimning ta’birini menga aytib ber.

7 Tushimda men dunyoning qoq o‘rtasida o‘sayotgan bir daraxtni ko‘rdim. U
nihoyatda ulkan edi. 8 Daraxt o‘sib, uning uchi osmonga yetdi. Daraxtni
dunyoning to‘rt burchagidan turib ko‘rsa bo‘lar edi. 9 Uning yaproqlari nihoyatda
chiroyli, mo‘l mevalari butun dunyoni ta’minlar edi. Yovvoyi hayvonlar uning
tagida pana topar, osmondagi qushlar shoxlarida in qurar, yer yuzidagi barcha
mavjudot undan oziqlanar edi.

10 Men to‘shagimda yotib, kelgan vahiyni tomosha qilayotganimda, osmondan
kuzatuvchi bir farishta tushib keldi. 11 U baland ovozda baqirdi: «Daraxtni
yiqitinglar, shoxlarini chopib tashlanglar, yaproqlarini uzib, mevalarini sochib
yuboringlar. Tagidagi hayvonlarni haydanglar, shoxlardagi qushlarni uchiringlar.
12 Ammo daraxtning to‘nkasi va ildizlariga tegmanglar, ularni temir va bronza
bilan zanjirlab, mayin dasht o‘tlari orasida qoldiringlar. Daraxt timsolidagi bu
odam osmondan tushgan shudringga cho‘milsin, yovvoyi hayvonlar bilan yashab,
nasibasini dasht o‘tlari orasidan terib yesin. 13 Undan inson ongi olib tashlansin.
U yetti yil* mobaynida ongsiz hayvonday yashasin. 14 Kuzatuvchi farishtalar shu
hukmni chiqarishdi, toki har bir mavjudot Xudoyi Taoloni inson saltanatining
yagona Hukmdori deb bilsin. U shohlikni xohlagan odamiga berar, xokisor
qashshoqni taxtga o‘tqazar.»

15 Men, shoh Navuxadnazar, ko‘rgan tush mana shudir. Endi sen, Beltashazar,
menga tushimning ta’birini aytib ber, chunki saroy maslahatchilari uni ta’birlay
olmadilar. Sen esa buning uddasidan chiqasan, chunki senda muqaddas
xudolarning ruhi* bor.”

Tushning ta’biri

16 So‘ng Beltashazar, ya’ni Doniyor bir qancha vaqt o‘ziga kelolmay turdi.
Mening tushim uni dahshatga tushirgan edi. “Beltashazar, tushim va uning ta’biri
seni dahshatga solmasin, — dedim unga men*.”

“Hazratim, — deb gapini boshladi Beltashazar. — Iloyim, bu tushingiz va
uning ta’biri dushmanlaringiz boshiga tushsin! 17 Siz, uchi osmon bilan o‘pishgan
baland bir daraxtni ko‘rdingiz. Bu daraxt shu qadar ulkan ediki, uni dunyoning
to‘rt burchagidan turib ko‘rsa bo‘lar edi. 18 Uning yaproqlari nihoyatda chiroyli,
mo‘l mevalari butun dunyoni ta’min qilar edi. Tagida yovvoyi hayvonlar yashar,
osmondagi qushlar shohlarida in qurar edi. 19 O‘sha ulkan daraxt — sizsiz, ey
shoh hazratlari! Siz yer yuzida hokimiyatingizni o‘rnatib, shuhratingizni osmonu
falaklarga yoygansiz.

20 Tushingizda siz, ey hazrati oliylari, osmondan tushib kelayotgan kuzatuvchi
farishtani ham ko‘rdingiz. Farishta: «Daraxtni yiqitib, yo‘q qilinglar», deb buyruq
berdi. «Ammo to‘nka va ildizlariga tegmanglar, ularni temir va bronza bilan
zanjirlab, dasht o‘tlari orasida qoldiringlar. Yetti yil davomida u osmondan
tushgan shudringga cho‘milib, yovvoyi hayvonlar bilan birga yashasin.»

21 Tush ta’biri shundaydir: Xudoyi Taoloning amriga muvofiq, bularning
barchasi kelajakda boshingizga tushadi. 22 Siz insonlar jamiyatidan haydalib,
yovvoyi hayvonlar orasida yashaysiz. Xudoyi Taolo inson saltanatining yagona
Hukmdori ekanini va U taxtni xohlagan odamiga berishini anglab
yetmaguningizcha yetti yil davomida molga o‘xshab o‘t yeb, osmondan tushgan
shudringga cho‘milasiz. 23 Ammo daraxt to‘nkasi va ildizlari qoldirilganligi
shundan dalolat beradiki, siz Xudoni Oliy Hukmdor deb tan olganingizdan keyin,
shohligingiz qayta tiklanadi. 24 O‘tinaman sizdan, ey shoh hazratlari,
maslahatimni rad etmang: gunohlaringizdan yuz o‘girib, to‘g‘rilikni mahkam
tuting, yomon qilmishlaringizdan voz kechib, ezilganlarga iltifot qiling. Kim
bilsin, balki shunda davlatingiz ravnaqi davom etar.”

Navuxadnazarning tushi oʻngidan keladi

25 Bularning hammasi mening boshimga tushdi*. 26 Oʻn ikki oylardan keyin,
men, Navuxadnazar, Bobildagi saroyimning tomida sayr qilib yurgan edim*.
27 Shunda shaharga nazar tashlab: “Oʻz qudratim bilan qurdirgan shohona
poytaxt Bobilni bir koʻrib qoʻyinglar–a! — dedim, — cheksiz kuchim va dabdabali
ulugʻvorligim bu shaharda aks ettirilgan.”
28 Bu soʻzlar ogʻzimdan chiqib ulgurmagan ham ediki, osmondan bir ovoz
keldi: “Ey shoh Navuxadnazar, gapimga quloq sol! Sen taxtingdan tushirilding!
29 Sen insonlar jamiyatidan haydalib, yovvoyi hayvonlar bilan yashaysan. Xudoyi
Taolo — inson saltanatining yagona Hukmdori ekanini va U taxtni xohlagan
odamiga berishini uqmaguningcha, yetti yil davomida molga oʻxshab oʻt yeb
yurasan.”
30 Menga aytilgan bu karomatli soʻzlar oʻsha zahotiyoq amalga oshdi. Men
insonlar jamiyatidan haydaldim. Mol kabi oʻt yeb, osmondan tushgan shudringga
choʻmildim. Sochlarim burgut qanotlariday uzun, tirnoqlarim qushning
changallariday boʻlguniga qadar, hayotim shu zaylda davom etdi.

Navuxadnazar Xudoni olqishlaydi

31 Belgilangan muddat tugagach, men koʻzimni osmonga tikdim, oʻsha
zahotiyoq es–hushim oʻzimga qaytib keldi. Men Xudoyi Taologa shukronalar
aytdim, mangu yashovchini olqishlab, ulugʻladim:

“Zero, abadiydir Uning hukmronligi,
Avlodlar oshadir Uning shohligi.
32 Yerdagi insonlar Uning nazdida hech narsadaydir,
Insonlaru malaklarga U hukmini oʻtkazgaydir.
Biror kimsa Unga bas kela olmas,
«Nima qilyapsan?» — deb soʻrashga jur’at etmas.”

33 Es–hushim oʻzimga qaytib kelganidan soʻng, shohligim, obroʻ–e’tiborim
hamda shuhratim tiklandi. Maslahatchi va beklarim meni qidirib kelishdi. Men
qayta taxtga oʻtirdim, ulugʻvorligim esa oldingidan ham oshdi.
34 Endi men, Navuxadnazar, Samoviy Shohga hamdu sanolar aytaman, Uni
ulugʻlab, sharaflayman. Uning hamma ishlari toʻgʻri, chiqargan hukmlari
adolatlidir, U dimogʻi shishganlarning popugini pasaytirishga qodirdir.

5–BOB

Belshazarning ziyofati

1 Oradan yillar oʻtdi. Bir kuni shoh Belshazar* katta bir ziyofat uyushtirdi, ziyofatga
mingta begini taklif qilib, ular bilan mayxoʻrlik qilayotgan edi. 2 Shirakayf boʻlib qolgan
shoh: “Katta bobom* Navuxadnazar Quddusdagi Ma’baddan olib kelgan oltin va kumush
qadahlar* keltirilsin!” — deb buyurdi. Shoh beklari, xotinlari va kanizaklari* bilan oʻsha
qadahlardan sharob ichmoqchi edi. 3 Quddusdagi Ma’bad, ya’ni Xudoning uyidan olib
kelingan oltin qadahlar bazmxonaga keltirildi. Shohning oʻzi, uning beklari, xotinlari va
kanizaklari qadahlardan sharob ichishdi. 4 Ular ichib, oltin, kumush, bronza, temir,

yog‘och va toshlardan qilingan xudolarni olqishlar edilar.

5 To‘satdan odam qo‘lining panjasi paydo bo‘lib, shoh saroyining devorlaridagi
suvoqning ustida yoza boshladi. Saroy chiroqlari devorning o‘sha qismini yaxshi yoritib
turgani uchun, shoh yozayotgan qo‘l panjasini ko‘rib qoldi. 6 Shoh bundan dahshatga
tushib, bo‘zarib ketdi. Uning qo‘llari bo‘shashib, tizzalari titray boshladi. 7 Shoh baqirib,
munajjim, afsungar* va rammollarni* keltirishni buyurdi. Ular hozir bo‘lganlarida, shoh
shunday dedi: “Kim bu yozuvni o‘qib, uning ma’nosini menga tushuntirib bersa, men
o‘sha odamning ustiga shohona safsar to‘n kiygizaman, bo‘yniga oltin zanjir taqib, chap
qo‘l vazirim* qilib tayinlayman.” 8 Shohning bu maslahatchilari ichkariga kirganlaridan
keyin ham yozuvni o‘qiy olmadilar, uning ma’nosini ham tushuntirib bera olmadilar.
9 Bundan qattiq vahimaga tushgan shoh Belshazarning rangida rang qolmadi, beklari
esa talmovsirab qolishdi.

10 Ichkaridagi shovqin–suronni eshitib, bazmxonaga kirgan ona malika*: “Shoh
hazratlarining umri boqiy bo‘lsin! — dedi. — Shohim, shunchalik ham qo‘rqasizmi,
qarang, axir, rangingizda rang qolmabdi–ku! 11 Sizning shohligingizda muqaddas
xudolarning ruhiga* to‘lgan bir odam bor. Katta bobongiz davrida bu odam idrokli,
zehni o‘tkir va xudolar kabi dono deb tan olingan edi. Katta bobongiz — shoh
Navuxadnazar uni folbin, munajjim, afsungar va rammollarning boshlig‘i qilib
tayinlagan edilar. 12 Doniyor ismli bu odam tushlarni ta’birlashda, sirlarni ochishda va
jumboqlarni yechishda g‘ayritabiiy qobiliyat, bilim va fahm–farosatga egadir. Katta
bobongiz uni Beltashazar deb atagan edi*. Shohim, buyuring, Doniyorni bu yerga
keltirishsin, u sizga bu yozuvning ma’nosini tushuntirib bergay.”

Doniyor yozuvni tushuntirib beradi

13 Doniyor shoh huzuriga keltirildi. Shoh Doniyordan: “Katta bobom Yahudodan asir
qilib olib kelgan Doniyor senmisan? — deb so‘radi. 14 — Seni xudolarning ruhi* bilan
to‘lgan, idrokli, zehni o‘tkir va dono deb eshitdim. 15 Men maslahatchilar va
munajjimlarni huzurimga chaqirtirib, ularga mana bu yozuvni o‘qib, ma’nosini
tushuntirib berishni buyurgan edim. Ammo ularning birontasi ham buning uddasidan
chiqa olmadi. 16 Sen esa jumboqlarni yechib, ularni tushuntira olishingni eshitganman.
Agar sen hozir bu yozuvni o‘qib, uning ma’nosini menga tushuntirib bersang, men
sening ustingga shohona safsar to‘n kiygizaman, bo‘yningga oltin zanjir taqib, chap qo‘l
vazirim qilib tayinlayman.”

17 Doniyor shoh huzurida shunday javob berdi: “Ey olampanoh, rahmat,
sovg‘alaringiz o‘zingizda qolaversin yoki ularni boshqa birovga bera qoling. Men bu
yozuvni shundoq ham o‘qib, uning ma’nosini tushuntirib beraman.

18 Ey shoh hazratlari, Xudoyi Taolo katta bobongiz Navuxadnazarni buyuk bir
saltanatning taxtiga o‘tqazib, shuhratini ro‘yi zaminga yoygandir. 19 Xudo unga bergan
ulug‘vorligi tufayli hamma odamlar — qaysi xalq, elat va urug‘dan bo‘lishlaridan qat’i
nazar, katta bobongizdan qo‘rqib qaltirar edilar. U xohlagan odamni o‘ldirar,
xohlaganini tirik qoldirar, yuksaltirmoqchi bo‘lganini yuksaltirar, xor qilmoqchi
bo‘lganini oyoq osti qilar edi. 20 Ammo mag‘rurlanib, o‘jarligi ila ish tuta boshlaganda
shohona taxtidan tushirilib, ulug‘vorligidan mahrum qilingan edi. 21 U insonlar
jamiyatidan haydalib, ongsiz hayvonday bo‘lib qolgandi. Yovvoyi eshaklar bilan yashab,
mol singari, o‘t bilan oziqlangan va osmondan tushgan shudringga cho‘milgandi. Oxiri

Xudoyi Taolo inson saltanatining yagona Hukmdori ekanini va U taxtni xohlagan odamiga berishini katta bobongiz tan olgan edi.

22 Ammo siz, ey shoh Belshazar, katta bobongizning boshidan o‘tgan bu voqealardan xabardor bo‘la turib* Xudoga bo‘ysunmadingiz! 23 Siz haddingizdan oshib, Samoviy Xudoga qarshi bosh ko‘tardingiz! Xudo Ma’badining qadahlarini huzuringizga keltirib, beklaringiz, xotinlaringiz va kanizaklaringiz bilan mayxo‘rlik qildingiz. Hech narsa ko‘rmaydigan, hech narsa eshitmaydigan, hech narsa bilmaydigan oltin, kumush, bronza, temir, yog‘och va toshdan yasalgan xudolarni madh ayladingiz. Ammo sizga hayot beruvchi va oxiratingizni belgilovchi Xudoni ulug‘lamadingiz. 24 Shuning uchun Xudo qo‘l panjasini yuborib quyidagi so‘zlarni yozdirdi:

25 MENE, MENE, TEKEL va PARSIN*.

26 Buning ma’nosi quyidagicha:

MENE, ya’ni «hisob» — Xudo hukmronlik vaqtingizni hisoblab chiqib, shohligingizga yakun yasadi.
27 TEKEL, ya’ni «tortilgan» — siz tarozida tortilib, hukmronlik qilishga nomunosib bo‘lib chiqdingiz.
28 PERES, ya’ni «bo‘lingan» — shohligingiz bo‘linib, Midiyaliklar va Forslarga berildi*.”

29 So‘ng Belshazar bergan amrga binoan, Doniyorga shohona safsar to‘n kiydirilib, bo‘yniga oltin zanjir taqildi va u shohning chap qo‘l vaziri deb e’lon qilindi.

30 Xuddi o‘sha kuni kechasi Bobil* shohi Belshazar o‘ldirildi*. 31 Taxtga esa oltmish ikki yoshli Midiyalik Doro* o‘tirdi.

6–BOB

Doniyor sherlar uyasida

1 Shoh Doro* butun shohligidagi yerlarni 120 ta viloyatga bo‘lib, har bir viloyat ustidan noib tayinlashga qaror qildi. 2 Noiblarni nazorat qilish uchun esa uchta amirni tayinladi, ularning biri Doniyor edi. Shohni urintirmaslik uchun ular noiblardan barcha hisobotni olishlari kerak edi. 3 Doniyor boshqa amiru noiblarga qaraganda o‘z ishini yuksak mahorat bilan bajarar edi. Shuning uchun shoh butun saltanat boshqaruvini Doniyorga topshirishni rejalashtirib qo‘ygandi. 4 Buni ko‘ra olmagan amiru noiblar qildan qiyiq axtarib, Doniyorning boshqaruv ishlaridagi nuqsonlarni topishga harakat qilishdi. Ammo Doniyor o‘z ishini puxta bajarib, hech qanday mas’uliyatsizlik va nohaqlikka yo‘l qo‘ymasdi. Shuning uchun uni ayblashga biron–bir bahona ham topa olmadilar. 5 Nihoyat ular bir–birlariga shunday dedilar: “Doniyorni faqatgina o‘z Xudosining qonuni bilan bog‘liq bo‘lgan holda ayblashimiz mumkin, bundan boshqa choramiz yo‘qqa o‘xshaydi.”

6 Shunda amiru noiblar shohning huzuriga borib: “Shoh Doro hazratlarining umri boqiy bo‘lsin! — dedilar. 7 — Shohlikning barcha amirlari, beklari, noiblari, a’yonlari va hokimlari shunday deb o‘zaro kelishib oldilar: shohimiz farmon joriy qilsinlar. Ey shoh hazratlari, bu farmon bo‘yicha hamma odam o‘ttiz kun mobaynida faqatgina sizga sajda

qilsin. Kimki boshqa bir xudo yoki odamga sajda qilsa, sherlar uyasiga tashlansin. Bu farmon qat'iy ravishda amalga oshirilsin. 8 Ey shoh hazratlari, farmon chiqarib uni imzolang. Bu farmoningiz Midiya va Fors qonunlariga binoan o'zgarmas bo'lsin." 9 Shoh Doro farmonni imzoladi. 10 Doniyor farmon imzolanganligini bila turib uyiga bordi. Boloxonasiga chiqib, har doim qilganiday, kuniga uch mahal tiz cho'kib Xudoga iltijo qildi, Uni madh etib ulug'ladi. Boloxonaning derazalari esa Quddus tomon ochilgan edi.

11 Amaldorlar bir to'da bo'lib Doniyorning uyiga borganlarida, Doniyor o'z Xudosiga iltijo qilayotganini ko'rib qoldilar. 12 Ular zudlik bilan bu haqda shohni xabardor qilish uchun shoh huzuriga bordilar.

— Ey shoh hazratlari! — deya murojaat qildi ular. — Siz farmon chiqarib, kimki o'ttiz kun ichida mendan boshqa bironta xudo yoki odamga sajda qilsa, sherlarning uyasiga tashlanadi, deb aytmaganmidingiz?

— Ha, chiqargan bu farmonim Midiya va Fors shohligining qonunlariga binoan, qat'iydir, — deya javob berdi shoh.

13 — Ey shoh hazratlari, Yahudo asirlaridan bo'lmish Doniyor sizni ham, siz chiqargan farmoningizni ham mensimay, kuniga uch marta o'z Xudosiga iltijo qilyapti, — dedi ular.

14 Shoh buni eshitgach, qattiq tashvishga tushdi. U Doniyorni saqlab qolish niyatida kun botgunga qadar, qo'lidan kelganicha harakat qildi. 15 Ammo amaldorlar shohning oldiga kelib:

— Shoh hazratlari, Midiya va Fors qonunlariga binoan, siz chiqargan har bir farmon o'zgarmas ekanligini esingizda tuting, — dedilar.

16 Shoh Doniyorni sherlarning uyasiga tashlashni buyurdi.

Doniyorning o'ziga esa: "Seni Xudoying qo'liga topshirdim, sen doim sajda qiladigan o'sha Xudo seni asrasin", — dedi.

17 Tosh keltirilib, chuqurlikning og'zi berkitib qo'yildi. Hech kim Doniyorni sherlardan qutqara olmasin deb, shoh o'zining va amaldorlarining tamg'alari bilan toshni muhrlab qo'ydi. 18 So'ng saroyiga qaytib, kechasi bilan tuz totmadi. Odatdagi kechki vaqti chog'lik ham ko'ngliga sig'may, tuni bilan uxlamay chiqdi.

19 Ertasi kuni tong otgach, shoh shosha–pisha sherlar uyasi tomon yugurdi. 20 U yerga borgach:

— Hoy Doniyor, barhayot Xudoning xizmatkori! — deya kuyinib xitob qildi u. — Sen doimo sajda qilib yurgan Xudoying seni sherlardan qutqara oldimi?

21 — Shoh hazratlarining umri boqiy bo'lsin! — dedi shohga Doniyor. 22 — Xudoyimning nazarida begunoh bo'lganim uchun U farishtasini yuborib, sherlarning og'izlarini berkitib qo'ydi va sherlar menga hech qanday zarar yetkazmadilar. Sizning oldingizda ham, ey shoh hazratlari, men biron–bir aybli ish qilgan emasman.

23 Xursandchiligi ichiga sig'magan shoh Doniyorni chuqurlikdan chiqarishni buyurdi. Doniyorni chuqurlikdan chiqargan odamlar unga hech qanday zarar yetmaganini ko'rishdi, chunki Doniyor Xudoga inongan edi. 24 Shohning buyrug'iga binoan, Doniyorni qoralagan odamlarni xotinu bola–chaqalari bilan birga sherlar uyasiga tashladilar. Ular chuqurlikning tubiga yetmagan ham ediki, sherlar ularga tashlanib g'ajib tashlashdi.

25 Shoh Doro butun dunyo bo'ylab barcha xalqlar, elatlar va urug'larga shunday maktub yo'lladi:

“Xonadoningizdan baraka arimasin! 26 Shohligimdagi barcha odamlar
Doniyorning Xudosidan qo‘rqib titrasin,

Chunki U barhayot va mangu Xudodir.
Uning shohligi aslo qulamas,
Hukmronligi hech ham tugamas,
27 Najotkoru xaloskor Udir.
Yeru ko‘kda alomatu mo‘jizalar ko‘rsatgan,
Udir Doniyorni sherlardan qutqarib olgan.”

28 Shoh Doro va Fors shohi Kurushning hukmronligi davrlarida* Doniyorning martabasi yana ham oshdi.

Doniyor ko‘rgan vahiylar

(7:1-12:13)

7–BOB

Doniyorning to‘rt maxluq haqidagi vahiysi

1 Bobil shohi Belshazar hukmronligining birinchi yilida* Doniyor bir tush ko‘rdi. U ko‘rgan tushi haqida shunday yozdi:

2 “Men tushimda bir vahiy ko‘rdim. Osmonning to‘rt tomonidan esayotgan qattiq shamol ulkan bir dengizni to‘lqinlantirayotgan edi. 3 O‘sha dengizdan bir–biriga o‘xshamaydigan to‘rtta bahaybat maxluq* chiqdi. 4 Birinchisi sherga o‘xshagan edi, uning burgut qanotlariga o‘xshagan qanotlari bor edi. Men maxluqni tomosha qilib turgan edim, birdaniga qandaydir bir kuch uning qanotlarini uzib tashladi, o‘zini esa ko‘tarib odamzodga o‘xshatib ikki oyog‘ida turg‘izib qo‘ydi. O‘sha maxluqqa inson ongi berilgan edi*.

5 Ikkinchi maxluq ayiqqa o‘xshar edi. U og‘ziga uchta qovurg‘a suyaklarini tishlab olgan edi. U hamla qilishga shaylana boshlaganda, unga shunday buyruq berildi: «Qani, ol, to‘yguningcha go‘sht yegin!»

6 So‘ng qoplonga o‘xshagani paydo bo‘ldi. Bu maxluqning to‘rtta boshi va orqasida qush qanotiga o‘xshagan to‘rtta qanoti bor edi. Unga hukmronlik qilish huquqi berilgan edi.

7 Bundan keyin tundagi vahiyda men qo‘rqinchli, dahshatli va benihoya kuchli bo‘lgan to‘rtinchi maxluqni ko‘rdim. U o‘z qurbonlarini temir tishlari bilan g‘ajib, parchalab tashlardi. Qoldiqlarini esa oyoqlari bilan bosib ezardi. Uning o‘nta shoxi bo‘lgani uchun, u oldingi maxluqlardan ajralib turar edi. 8 Men maxluqning shoxlarini tomosha qilib turganimda, ularning orasidan o‘sib chiqayotgan yana bir shoxchani* ko‘rdim. Unga joy berish uchun oldingi o‘nta shoxdan uchtasi tag–tugi bilan uzilib tushdi. Bu yangi o‘sib chiqqan shoxning inson ko‘zlariga o‘xshagan ko‘zlari va takabburona gapiradigan og‘zi bor edi.

Doniyorning Azaliy Nuroniy haqidagi vahiysi

9 Men taxtlarning joy–joyiga o‘rnatilganini tomosha qilib turdim, Azaliy Nuroniy* O‘z

joyiga oʻtirdi. Uning kiyimi qorday oq, sochlari esa oppoq momiqday edi. Uning taxti otashin alanga, taxtining gʻildiraklari lovullagan olov edi. 10 Uning huzuridan olovli daryo oqib chiqdi. Minglar Unga xizmat qilar edi, million–millionlar Uning amriga muntazir edi. Sud majlisi boshlandi, hamma kitoblar* ochildi.

11 Kichkina shoxning kibrlanib shangʻillashi mening e'tiborimni tortgan edi. Men uni tomosha qilayotganimda oʻsha toʻrtinchi maxluq oʻldirildi, uning jasadi olovga tashlanib, kuydirib yuborildi. 12 Qolgan maxluqlarga kelsak, ularning hukmronligi yoʻq qilindi, ammo hayotlari ma'lum bir vaqtgacha* saqlab qolindi.

13 Tunda kelgan oʻsha vahiyda men osmon bulutlarida kelayotgan inson qiyofasidagi bir zotni* koʻrdim. U Azaliy Nuroniyning oldiga keldi. 14 Unga hukmronlik, ulugʻvorlik va shohlik berildi. Barcha xalqlar, elatlar va urugʻlar unga boʻysunishdi. Uning hukmronligi bitmas–tuganmas, abadiy hukmronlikdir. Uning shohligi hech qachon buzilmaydi.

Doniyor koʻrgan vahiyning ma'nosi

15 Men koʻrgan bu vahiy yuragimga gʻulgʻula solib, allanechuk vahimaga tushirgan edi. 16 Men taxt yonida turganlarning bittasiga yaqinlashib, bularning hammasini tushuntirib berishini soʻradim. U menga vahiyning ma'nosini ochib, dedi: 17 «Sen koʻrgan toʻrtta maxluq bu yer yuzida hukmronlik qiladigan toʻrtta shohlikdir. 18 Ammo Xudoyi Taoloning azizlari shohlikni qabul qilib, unga to abad ega boʻladilar.»

19 Men toʻrtinchi maxluq* haqida koʻproq ma'lumot olishni xohlar edim, chunki u boshqa maxluqlardan ajralib turar edi. Temir tishlari va bronza changallari boʻlgan bu badbashara maxluq qurbonlarini gʻajib tilka–pora qilar, qoldiqlarini bosib ezardi. 20 Uning boshidagi oʻnta shoxi, ayniqsa, yangi oʻsib chiqqan shox meni juda qiziqtirib qolgan edi. Oʻsha shox oʻsib chiqayotganda oʻrnidagi uchta shoxni tushirib yuborgan edi. Koʻzlari va kibrlanib gapiradigan ogʻzi boʻlgan bu shox boshqa shoxlarga qaraganda koʻproq ahamiyatga egaday boʻlib koʻrinar edi.

21 Bundan tashqari, vahiyda men oʻsha shoxning Xudoning aziz xalqi bilan jang qilayotganini va ularni yengayotganini koʻrgan edim. 22 Shu orada Azaliy Nuroniy kelib, Oʻzining azizlari foydasiga hukm chiqardi. Xudoyi Taoloning aziz odamlari uchun shohlikni oʻz tasarrufiga olish vaqti yetib kelgan edi.

23 Suhbatdoshim menga shunday dedi: «Toʻrtinchi maxluq bu yer yuzida hukmronlik qiladigan toʻrtinchi shohlikning timsolidir. Bu shohlik boshqa shohliklardan ajralib turadi. U butun dunyoni gʻajib, ezib parcha–parcha qiladi. 24 Maxluqning oʻnta shoxi — shohlikni boshqaradigan oʻnta hukmdordir. Keyinchalik taxtga yangi bir hukmdor oʻtiradi. Bu hukmdor oldingi oʻnta hukmdordan ajralib turadi va uchta hukmdorni taxtdan tushiradi. 25 U kufr ketib, Xudoyi Taoloning azizlarini ayovsiz ezadi. Muqaddas bayramlar va qonunlarni oʻzgartirishga urinadi. Xudoning aziz odamlari uch yarim yil* davomida oʻsha hukmdorning zulmi ostida boʻladilar. 26 Bu muddat tugagach, samoda sud majlisi boshlanadi. Zolim hukmdor taxtdan tushirilib, butunlay yoʻq qilinadi. 27 Xudoyi Taoloning azizlariga esa shohlik, hukmronlik va yer yuzidagi barcha saltanatlarning ulugʻvorligi beriladi. Hamma hukmdorlar ularga boʻysunib, xizmat qiladilar, ularning shohligi abadiy shohlik boʻladi.»

28 Koʻrgan, eshitganlarim mana shudir. Bu tushimdan shu qadar vahimaga tushgan edimki, rangimda rang qolmagan edi. Ammo bular toʻgʻrisida ogʻiz ochmay, hammasini ichimga yutdim."

8–BOB

Doniyorning qo‘chqor va echki haqidagi vahiysi

1 Doniyor shunday deb yozdi:

“Shoh Belshazar hukmronligining uchinchi yilida* menga yana bir vahiy keldi. 2 Bu
vahiyda men Elam viloyatidagi Shushan qal’asida*, Uloy daryosining bo‘yida turgan
ekanman. 3 Men daryo bo‘yida bir qo‘chqor turganini ko‘rdim. Uning ikkita uzun–uzun
shoxlari bor ekan*. Ikkinchi bo‘lib chiqqan shox birinchisiga qaraganda uzunroq ekan*.
4 Qo‘chqor o‘zini g‘arb, shimol va janubga urib, yo‘lida duch kelgan hamma narsani suzar
edi. Hech qanday hayvon unga bas kela olmas, uning qurbonlarini qutqara olmas edi.
Qo‘chqor xohlagan ishini qilar, kuchi tobora oshib borar edi.

5 Buni tomosha qilib turganimda, g‘arb tomondan bir taka ko‘rindi. Yelday uchib
kelayotgan bu takaning tuyoqlari go‘yo yerga tegmayotganday tuyular edi. Uning ikki
ko‘zi orasida ulkan bir shox bor edi*. 6 U quturganicha qo‘chqor tomon yugurdi–da,
7 qahr–g‘azab bilan unga tashlanib, suzdi. Takaning zarbasi zo‘rligidan, qo‘chqorning
ikkala shoxi sinib tushdi. Qo‘chqor takaga bas kela olmadi. Taka uni yerga yiqitib
toptadi, hech kim qo‘chqorni undan qutqara olmas edi.

8 Taka nihoyatda kuchayib ketdi, ammo kuch–qudrat cho‘qqisida uning ulkan shoxi
sinib tushdi. Sinib tushgan shoxning o‘rniga dunyoning to‘rt tomoniga qayrilgan to‘rtta
katta shox o‘sib chiqdi*.

9 Ularning biridan yana bitta shoxcha chiqdi. Uning kuch–qudrati oshib, janub, sharq
va go‘zal Isroil o‘lkasi* tomon yoyildi. 10 Qudrati osmonu falakka yetgan bu shox
samoviy lashkarlarga hujum qildi. Samoviy lashkarlar bo‘lmish yulduzlarning
ayrimlarini yerga tushirib toptadi. 11 Hatto samoviy lashkarning Sarkardasi — Xudoni
mensimay, Unga keltiriladigan kundalik qurbonliklarni to‘xtatdi. Ma’badni esa vayron
qilib, 12 samoviy lashkarlarni mag‘lub qildi. Kundalik qurbonliklar o‘rniga haddan
tashqari jirkanch bir narsani o‘rnatdi. Haqiqatni oyoq osti qilgan bu shox har bir ishida
muvaffaqiyat qozonar edi*.

13 Keyin men farishtalar o‘zaro gaplashayotganini eshitib qoldim. Ularning biri
boshqasidan shunday deb so‘raganini eshitdim:

— Vahiydagi bu hodisalar qachongacha davom etar ekan–a? Qachongacha bu
jirkanch narsa kundalik qurbonliklar o‘rnini egallaydi? Qachongacha Ma’bad va samoviy
lashkarlar oyoq osti bo‘ladi?

14 Sherigi unga shunday javob berdi:

— Bunday ahvol 2300 kechayu kunduz* davom etadi. O‘sha vaqt mobaynida
qurbonliklar keltirilmaydi. Shundan so‘ng Ma’bad poklanib, asl holiga qaytariladi.

Farishta Jabroil vahiylarni tushuntirib beradi

15 Men ko‘rgan vahiyning mag‘zini chaqmoqchi bo‘lib, boshimni qotirib turganimda,
birdaniga oldimda odam qiyofasidagi allakim paydo bo‘ldi. 16 Shu paytda men Uloy
daryosi tomonidan:

— Ey Jabroil, bu odamga vahiyning ma’nosini tushuntirib ber, — deb xitob
qilayotgan inson ovozini eshitdim. 17 Jabroil menga yaqinlashganda, men
qo‘rqqanimdan yuz tuban yerga yiqildim. Ammo u menga:

— Tushungin, ey inson*, bu oxirzamon vahiysi, — dedi.

18 U gapirayotganda men hushimdan ketib, yuz tuban yerda cho‘zilib yotgan edim.
Ammo u qo‘lini tekkizib, meni turg‘izib qo‘ydi–da, 19 shunday dedi:
— Eshit, men senga oxirzamon paytida sodir bo‘ladigan narsalarni ayon qilaman,
o‘sha davrda Xudo O‘z g‘azabini yer yuziga sochishni belgilagandir. 20 Sen ko‘rgan ikki
shoxli qo‘chqor — bu Midiya va Fors shohliklaridir. 21 Taka esa Yunon shohligidir. Ikkala
ko‘zining orasidagi ulkan shox — bu Yunon shohligining taxtida o‘tiradigan birinchi
hukmdordir. 22 Sinib tushgan shoxning o‘rniga chiqqan to‘rtta shox — Yunon shohligi
to‘rt qismga bo‘linishini bildiradi. Taxtga o‘tirgan to‘rtala hukmdor oldingi hukmdorga
qaraganda zaifroq bo‘ladi. 23 Ularning hukmronlik paytlari oxirlab, gunohlari to‘lib–
toshganda, makr–hiylaga usta, vajohati xunuk bir hukmdor taxtga o‘tiradi. 24 U
nihoyatda kuchayib ketadi, biroq o‘zining kuchi bilan emas. U hamma yoqni vayron
qilib, barcha ishlarida muvaffaqiyat qozonadi. Zabardast yo‘lboshchilaru Xudoning
azizlarini qirib tashlaydi. 25 Ustalik bilan ishlatgan makkorligi tufayli ko‘p yutuqlarga
erishadi. Ko‘zini yog‘ bosgan bu hukmdor ogohlantirmasdan ko‘p odamlarni halok
qiladi. U hatto eng buyuk Hukmdorga qarshi bosh ko‘taradi. Oqibatda esa yo‘q qilib
tashlanadi, ammo bu insonning kuchi bilan qilinmaydi. 26 Doniyor, men hozir senga
tushuntirib bergan ertalabki va kechqurungi qurbonliklarga oid bo‘lgan bu vahiy albatta
amalga oshadi. Sen vahiyni sir tutgin, chunki bu uzoq kelajakka oid narsadir.
27 Bu voqeadan so‘ng tobim qochib, bir necha kun betob bo‘lib yotdim. Keyin turib,
shohning xizmatiga qaytdim. Ammo vahiy meni tamomila esankiratib qo‘ygan edi. Men
uning ma’nosini tushunmagan edim.

9–BOB

Doniyor xalq uchun ibodat qiladi

1 Bobil* taxtiga o‘tirgan Midiyalik Axashverash* o‘g‘li Doro* hukmronligining ilk
davri. 2 Men Doro hukmronligining dastlabki yilida payg‘ambarlar yozib qoldirgan
bitiklarni mutolaa qilishga kirishgan edim. Egamiz Yeremiyo payg‘ambarga aytgan
so‘zlariga ko‘ra*, Quddus yetmish yil davomida xarob bo‘lib yotishini bilib oldim.
3 Shunda men Rabbiy Xudoga yolvordim, ro‘za tutib, qanorga o‘randim, kulga
belanib*, iltijo qildim. 4 Men Egam Xudoga ibodat qilib, xalqimning gunohlari uchun
shunday deb tavba qildim:

> Yo Rabbiy, Sen buyuk va haybatli Xudosan! Seni sevib, amrlaringga rioya
> qilgan bandalaringga Sen ahdingni sodiq saqlaysan. 5 Ammo biz nohaqlik qilib,
> gunohga qo‘l urdik. Qabih ishlar qilib, Senga qarshi bosh ko‘tardik, amrlaru
> qonun–qoidalaringni unutib, 6 shohlarimizga, rahnamolarimizga, ota–
> bobolarimizga va avom xalqqa Sening nomingdan gapirgan xizmatkorlaring —
> payg‘ambarlarga biz quloq solmadik.
> 7 Sen haqsan, yo Rabbiy. Biz esa bugun sharmanda bo‘ldik. Biz Senga xiyonat
> qilganimiz uchun, Sen hammamizni — Yahudo va Quddus aholisini hamda butun
> Isroil xalqini yaqin va uzoq yurtlarga tarqatib yuborgansan. 8 Ey Egam, biz Senga
> qarshi gunoh qilganimiz uchun shohlarimiz, rahnamolarimiz, ota–bobolarimiz —
> biz hammamiz sharmanda bo‘ldik. 9 Yo Rabbimiz Xudo, biz Senga qarshi bosh
> ko‘targan bo‘lsak ham, Sen gunohlarimizni kechiruvchi, rahmdil Xudosan. 10 Ey

Egamiz Xudo, biz Senga itoat etmadik! Sen xizmatkorlaring bo‘lmish
payg‘ambarlar orqali bizga qonunlar berding, ammo biz ularga rioya qilmadik.
11 Butun Isroil xalqi qonuningni buzib, haq yo‘ldan ozdi, Senga quloq solishni
xohlamadi. Biz Senga qarshi gunoh qilganimiz uchun quling Musoning qonunida
yozilgan qasamyodu la’natlar boshimizga tushdi. 12 Ha, Sen bizni va
rahnamolarimizni ogohlantirgan eding! So‘ng aytganlaringni qilib, boshimizga
shunday falokatlar yog‘dirdingki, Quddusda yuz bergan bunday dahshatli fojiani
yorug‘ dunyo hali ko‘rmagan edi. 13 Musoning qonunida yozilgan har bir falokat
boshimizga tushdi. Ammo biz shunda ham gunohlarimizdan qaytmadik, Egamiz
Xudoning marhamatini izlamadik, Uning sodiqligini esga olmadik. 14 Vaqti kelib
Egam bizni bu falokatlarga giriftor qildi, chunki biz Uning gaplariga itoat
qilmadik. Darhaqiqat, Egamiz Xudo doim adolat ila ish tutar.
15 Ey Rabbimiz Xudo, Sen O‘z xalqingni qudrating ila Misrdan olib chiqib,
shuhratingni olamga yoyding. Sening qudrating bugunga qadar tilga olinar. Biz
esa gunoh qildik, qabihlikka qo‘l urdik. 16 Yo Rabbiy, Sen o‘tmishda bizga ko‘p
iltifot qilding. Hozir ham g‘azabu qahringni Quddusdan yiroq qilgin, deb
yolvoraman. Quddus Sening shahring, Sening muqaddas tog‘ing–ku*, axir!
Bizning va ota–bobolarimizning gunohlari tufayli Quddus va tanlangan xalqing
qo‘shni xalqlar orasida xor–zor bo‘lmoqda. 17 Shuning uchun, ey Xudoyimiz, men,
qulingning ibodatu iltijolariga quloq tutgin. Yo Rabbiy, xarob bo‘lgan
Ma’badingga O‘z haqi–hurmating uchun munavvar yuzing bilan boqqin. 18 Ey
Xudoyim, quloq solib, nolalarimizni eshitgin! Ko‘zingni ochib, biz tortgan jabrni
ko‘rib qo‘ygin! Shaharning ahvoliga bir qara, axir, u Sening noming bilan atalgan–
ku! Biz Sening marhamatingga loyiq bo‘lmasak–da, O‘zingning cheksiz
rahmdilliging tufayli bizga shafqat qil. 19 Yo Rabbiy, nolalarimni eshitgin! Yo
Rabbiy, bizni kechirgin! Yo Rabbiy, iltijolarimni eshitib yordam bergin!
Hurmating haqi shoshilgin, chunki bu shahring va xalqing Sening noming bilan
atalgandir, ey Xudoyim!

Jabroil bashoratni tushuntirib beradi

20 Men toat–ibodatda bo‘lib, o‘zimning gunohlarim va xalqim Isroilning gunohlari
uchun tavba qilib, Xudoning muqaddas tog‘i — Quddus* uchun Egam Xudoga iltijo
qilayotgan edim. 21 Kechki qurbonlik paytida men hali ibodat qilayotganimda, oldimga
Jabroil uchib tushdi. Men uni oldingi vahiyda ham ko‘rgan edim*. 22 U menga
tushuntirdi: «Doniyor, men oldingga vahiyni tushuntirmoq uchun keldim. 23 Sen Xudoga
iltijo qila boshlaganingda, U senga javob bergan edi. Men javobini senga yetkazmoq
uchun keldim, chunki sen Xudoning suyukli bandasisan. Qani, endi aytadigan gaplarimni
yaxshilab eshit, vahiyning ma’nosini tushunib olgin: 24 isyonni bartaraf etish, qabihlikka
chek qo‘yish, gunohdan poklash hamda abadiy adolat o‘rnatish uchun Xudo sening
xalqing va muqaddas shahring uchun yetmish karra yetti yil* belgiladi. Shunda vahiy va
karomatlar amalga oshadi, muqaddas Ma’bad* esa tabarruk qilinadi. 25 Shuni bilib
qo‘yginki, Quddusni tiklash uchun amr berilganidan to Xudo moy surtib tanlagan
yo‘lboshchi* kelguniga qadar, yetti karra yetti yil* o‘tadi. Oltmish ikki karra yetti yil*
mobaynida Quddus shahri, uning yo‘llari va mudofaa inshootlari tiklanadi, ammo bular
mashaqqatli damlarda sodir bo‘ladi. 26 Oltmish ikki karra yetti yil o‘tgach, Xudo tanlagan

yo‘lboshchi o‘ldiriladi. U erishgan hamma narsa barbod bo‘ladi*. Qo‘shin tortib kelgan ajnabiy bir hukmdor shaharga kuchli selday yopirilib, shaharni hamda Ma’badni vayron qiladi. Xudoning qaroriga muvofiq, urushu vayronagarchiliklar o‘sha davrning oxirigacha davom etadi. 27 O‘sha hukmdor ko‘p xalqlar bilan bir karra yetti yilga* kuchli bir bitim tuzadi. O‘sha vaqtning yarmi o‘tgach, qurbonlik va nazrlarga chek qo‘yib, Ma’badda* makruh bir narsa o‘rnatadi. Bu narsa ko‘p harom–xarish ishlarga sabab bo‘ladi*. Bu ahvol Xudo belgilagan kungacha davom etadi. O‘sha kuni shahar bilan Ma’badni vayron qilgan hukmdorning kuni bitadi.»”

10–BOB

Doniyorning farishta haqidagi vahiysi

1 Fors shohi Kurush hukmronligining uchinchi yilida*, Beltashazar deb atalgan Doniyorga* Xudodan bir xabar kelgan edi. Kelajakda albatta sodir bo‘ladigan kuchli to‘qnashuvga oid bo‘lgan bu* xabarning ma’nosi Doniyorga vahiy orqali ayon bo‘ldi.
2 Doniyor shunday deb yozdi:

“O‘sha paytda men uch hafta azadorday yurdim. 3 Uch hafta davomida hech qanday tansiq taom yemadim, go‘sht bilan sharobni og‘zimga olmadim, yuvinib–taranmadim.
4 Birinchi oyning* yigirma to‘rtinchi kunida buyuk Dajla daryosining bo‘yida turganimda, 5 men birovni ko‘rdim. Uning egnida zig‘ir tolasidan to‘qilgan libos, belida sof tilladan yasalgan kamar* bor edi. 6 Uning tanasi qimmatbaho toshday yarqirab turar edi. Yuzi yashinday porlab, ko‘zlari mash’aladay yonib turar edi. Oyoq–qo‘llari yaltiroq misday tovlanib, ovozi butun bir olomon ovoziday yangrar edi.

7 Vahiyni faqat men ko‘rdim. Yonimdagilar vahiyni ko‘rmagan bo‘lsalar ham, vahimaga tushdilar. Ular tumtaraqay bo‘lib har yoqqa yashirinib oldilar. 8 Men bir o‘zim qoldim. O‘sha ajoyib vahiyni ko‘rayotganimda quvvatsizlanib, aft–angorim tanib bo‘lmaydigan darajada o‘zgarib ketganini sezdim. Madorim qolmagan edi. 9 Men farishtaning ovozini eshitganimda hushimdan ketib, yuz tuban yerda cho‘zilib qoldim.
10 So‘ng esa kimningdir bir qo‘li menga tegib, meni kaft va tizzalarimga turg‘izib qo‘ydi.

11 O‘sha farishta menga:

— Ey Doniyor, sen Xudoning suyukli bandasisan, — dedi. — Qani, tur! Senga aytadigan gaplarimga quloq sol, chunki men sening oldingga yuborilganman.

U shu gaplarini menga aytayotganda, men qaltirab o‘rnimdan turdim.

12 — Doniyor, qo‘rqma! — dedi u menga. — Sen hayot lazzatlaridan voz kechib, xabar xususida mulohaza yuritishni boshlagan kuningdayoq, iltijolaring ijobat bo‘lgan edi. Iltijolaringga binoan, men oldingga keldim. 13 Ammo Fors shohligini himoya qiluvchi farishta yigirma bir kun davomida menga qarshilik ko‘rsatdi. Men u bilan jang qilib hayallab qolganim uchun*, bosh farishtalardan biri bo‘lgan Mikoyil menga yordamga keldi. 14 Men senga kelajakda xalqing boshiga tushadigan narsalarni tushuntirish uchun keldim. Bu vahiy o‘sha kunlarga oiddir.

15 U shu so‘zlarni gapirayotganda, men lom–mim deya olmay, boshimni egib turar edim. 16 So‘ng odam qiyofasidagi boshqa birovi* lablarimga qo‘l tekkizdi. Men og‘zimni juftlab, oldimda turganga dedim:

— Hazratim, bu vahiy yurak–bag‘rimni ezib yubordi, madorim quridi. 17 Menday bir

qul qanday qilib hazratim bilan gaplasha oladi? Holdan toyganman, bazoʻr nafas olyapman.

18 U yana bir bor menga qoʻlini tekkizib, menga kuch ato etdi. 19 Men birinchi koʻrgan boshqa birovi* shunday dedi:

— Ey Xudoning suyukli bandasi, qoʻrqma! Tinchlan! Dadil boʻl!

U menga gapirayotganda, dadillanib dedim:

— Hazratim, siz menga dalda berdingiz, endi gapiravering.

20-21 — Sening oldingga nima uchun kelganimni bilasanmi oʻzi? — deb soʻradi u. — Men senga Haqiqat kitobida yozilgan narsalarni aytib bermoqchiman. Bundan soʻng men qaytib, Fors shohligini himoya qiluvchi farishtaga qarshi urushga chiqaman. Keyin Yunon shohligini himoya qiluvchi farishta bilan jang qilaman. Bu toʻqnashuvda Isroilni himoya qiluvchi Mikoyil farishtadan boshqa yordamchim yoʻq.

11–BOB

1 Midiyalik Doro* hukmronligining birinchi yilida men Mikoyilga yordam berib, uni muhofaza qilib turgan edim.”

Farishta Doniyorga bergan bashorat

Misr va Suriya shohliklari

2 Farishta* gapida davom etib, Doniyorga shunday dedi:

“Endi esa men senga haqiqatni aytaman. Fors shohligida yana uchta shoh hukmronlik qiladi. Toʻrtinchi shoh boshqalarga qaraganda ancha badavlat boʻladi. U boyligi orqali kuch orttirib, hammani Yunon shohligiga qarshi qoʻzgʻatadi.

3 Keyin taxtga jangovar bir shoh oʻtiradi, u beqiyos bir saltanatni boshqarib, xohlagan ishini qiladi. 4 Ammo qudratining choʻqqisida saltanati parchalanib, toʻrt qismga boʻlinib ketadi. Shoh sulolasiga mansub boʻlmagan yetti yot begonalar taxtga oʻtiradi, biroq saltanatning ilgarigi kuch–qudrati ularda boʻlmaydi.

5 Shu orada Misr shohi* kuchayib ketadi, ammo shohning zobitlaridan biri zoʻrayib, shoh saltanatidan ulkanroq bir saltanatga hukmronlik qiladi. 6 Bir necha yil oʻtgach, Misr shohi Suriya shohi* bilan ittifoq tuzib, unga qizini uzatadi. Shu orqali u Suriya shohi bilan aloqasini mustahkamlamoqchi boʻladi, biroq ittifoq uzoq davom etmaydi. Qiz, kuyov, qizning otasi* va ularning xizmatkorlari xoinlikning qurbonlari boʻlishadi.

7 Koʻp oʻtmay Misr taxtiga qizning qarindoshlaridan biri oʻtiradi. U Suriya shohining qoʻshinlariga hujum qilib, istehkomlarini zabt etadi. Qoʻshinlarni tor–mor qilib, gʻalaba qozonadi. 8 Suriya xudolarining haykallarini, oltin va kumushdan qilingan qimmatbaho idishlarni oʻlja qilib, Misrga olib ketadi. Soʻng bir necha yil davomida Suriya shohining tinchligini buzmaydi. 9 Shundan keyin Suriya shohi Misrga bostirib boradi, ammo yengilib, oʻz yurtiga qaytib ketadi.

10 Suriya shohining oʻgʻillari jangga otlanib, Misrga katta bir qoʻshin tortib borishadi. Qoʻshinlar sel kabi oqib, yovning qal’asiga hujum qilishadi. 11 Gʻazablangan Misr shohi Suriya shohi bilan jang qilib, katta yov qoʻshinini tor–mor qiladi. 12 Gʻalabaga erishgan Misr shohi oʻta magʻrurlanib ketadi, ammo omad unga boshqa kulib boqmaydi, 13 chunki bir necha yildan keyin Suriya shohi yana Misrga qoʻshin tortib keladi. Bu safar Suriya qoʻshinlari oldingidan ham ziyodroq, tish–tirnogʻigacha qurollangan boʻladi.

14 Shunda ko‘p odamlar Misr shohiga qarshi bosh ko‘taradilar. Vahiy amalga oshsin
deb, xalqing orasidagi ayrim zo‘ravonlar ham qo‘zg‘aladi, ammo muvaffaqiyatga erisha
olmaydilar. 15 Suriya shohi mustahkam bir shaharni qamal qilib, qo‘lga kiritadi.
Suriyaning siquvi ostida Misr qo‘shinlari chekinadilar, hatto Misrning saralangan
lashkari ham yov qo‘shinining shiddatli hujumini qaytara olmaydi. 16 Suriya shohi
xohlagan ishini qiladi, biror kishi unga qarshilik qilishga jur’at etmaydi. U go‘zal Isroil
yurtini* qo‘lga kiritib, uni vayron qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.
17 Dastavval Suriya shohi o‘z saltanatidagi bor qo‘shinni to‘plab, Misrni zabt
etmoqchi bo‘ladi. Keyin Misrni ichidan yemirmoqchi bo‘lib, Misr shohi bilan sulh tuzadi
va unga qiz uzatadi. Ammo Suriya shohining bu rejalari puchga chiqib, muvaffaqiyat
keltirmaydi. 18 Bundan so‘ng Suriya shohi dengiz qirg‘og‘idagi shaharlarga hujum qilib,
ko‘plarini qo‘lga kiritadi. Ammo o‘zga yurtlik bir sarkarda bu surbet shohning popugini
pasaytirib, qilmishlariga yarasha jazosini beradi. 19 Shunda Suriya shohi chekinib, o‘z
yurtidagi qal’alariga qaytib ketadi, ammo yo‘lda halokatga uchrab nobud bo‘ladi.
20 Uning o‘rniga Suriya taxtiga boshqa bir shoh o‘tiradi. Xazinasini boyitmoqchi
bo‘lgan bu shoh zobitini yuborib, odamlarga katta soliqlar soladi. Ammo qisqa vaqt
ichida halok bo‘ladi. Bu noxush voqea na jangda, na birovning qasdi natijasida sodir
bo‘ladi.

Razil Suriya shohi

21 Taxtga o‘tirgan keyingi shoh esa yaramas bir odam bo‘ladi. Shoh sulolasiga
mansub bo‘lmagan bu kishi kutilmaganda hiyla orqali Suriya taxtiga chiqib oladi. 22 Unga
qarshilik ko‘rsatgan barcha qo‘shinlarni oradan supurib tashlab, yo‘q qiladi. Hatto oliy
ruhoniyni* ham shu ko‘yga soladi. 23 U boshqa xalqlar bilan bitim tuzgach, makkorona
ish tutadi. Unga ergashuvchilarning soni kam bo‘lishiga qaramay, qudrati tobora oshib
boraveradi. 24 U to‘satdan badavlat viloyatlarga bostirib borib, ota–bobolari qilmagan
ishlarga qo‘l uradi. Qo‘lga kiritgan o‘ljayu mol–mulkni o‘ziga ergashganlarga ulashib
beradi. Qal’alarni qo‘lga olish rejalarini tuzadi, ammo bunday hol uzoq davom etmaydi.
25 U kuch–qudratini yig‘ib, Misr shohiga qarshi katta bir lashkar tortib boradi. Misr
shohi esa Suriya lashkaridan bisyorroq va kuchliroq qo‘shin bilan yov hujumini
qaytarmoqchi bo‘ladi. Biroq hiylagarlarning domiga tushib, inqirozga yuz tutadi. 26 Misr
shohining o‘z hamtovoqlari uning tomiriga bolta uradilar. Tor–mor bo‘lgan Misr
qo‘shinlari jangda halok bo‘ladilar. 27 O‘sha ikkala shoh bir dasturxonda o‘tirib
ovqatlanishadi, ammo dilidagi g‘arazni xushomad bilan yashirib, bir–biriga yolg‘on
gapirishadi. Biroq Xudo belgilab qo‘ygan vaqt–soati yetib kelmagani uchun, birontasi
ham muvaffaqiyatga erishmaydi. 28 Suriya shohi bir talay boylik bilan ona yurtiga qaytib
ketadi. Yo‘lda esa muqaddas ahd ahliga va ularning e’tiqodiga qarshi chiqib, ularga ko‘p
ozor yetkazadi.
29 Belgilangan vaqtda Suriya shohi yana Misrga yurish qiladi, ammo bu safar vaziyat
boshqacha tus oladi. 30 G‘arb sohillaridan* kelgan jang kemalari Suriya shohiga qarshilik
ko‘rsatishadi, yuragi dov bermagan Suriya shohi chekinadi. Biroq muqaddas ahd ahliga
va ularning e’tiqodiga g‘azabini sochib, alamidan chiqadi, muqaddas ahddan toyganlarni
esa mukofotlaydi. 31 Uning lashkari Xudo xalqining qal’asi bo‘lmish Ma’badga bostirib
kirib, tabarruk joyni harom qiladi. Ular kundalik qurbonliklarni to‘xtatib, ko‘p harom–
xarish ishlarga sabab bo‘ladigan makruh narsani* o‘rnatishadi. 32 Shoh shirin so‘zlar

bilan ahddan toyganlarning ko‘nglini ovlab, ularni o‘z tomoniga og‘dirib oladi. Xudoga sodiq qolganlar esa bor kuchlari bilan unga qarshilik ko‘rsatadilar. 33 Xalq orasidagi dono yo‘lboshchilar odamlarga oqilona pand–nasihatlar berishadi. Ammo ko‘p o‘tmay ularning ayrimlari qilichdan o‘tkaziladi, ayrimlari tiriklayin olovda kuydiriladi, ayrimlari zindonga tashlanadi, ularning mol–mulki tortib olinadi. 34 Quvg‘in paytida ularga ozgina yordam tegadi. Biroq saflariga ba’zi bir riyokor odamlar kirib olishadi. 35 Quvg‘in paytida ayrim dono kishilar azob chekadilar. Biroq bu azoblar orqali Xudo ularni oxirzamon vaqtiga tayyorlab, tozalab poklaydi, chunki belgilangan vaqt hali ham kelmagan bo‘ladi.

36 Suriya shohi xohlaganini qiladi. O‘zini yuksaltirib, xudolardan ustun qo‘yadi. Eng buyuk Xudoga qarshi gapirib, kufr ketadi. Xudo belgilab qo‘ygan g‘azab davri tugaguniga qadar muvaffaqiyat qozonadi. Biroq Xudo O‘z rejasini albatta amalga oshiradi. 37 Suriya shohi ota–bobolari sig‘ingan xudolarni hamda ayollar yaxshi ko‘radigan xudoni* pisand qilmaydi. O‘zini yuksaltirib, bironta xudoni nazariga ilmaydi. 38 Bularning o‘rniga u qal’alarni himoya qiluvchi xudoni* ulug‘laydi. Ota–bobolari topinmagan bu xudoga u oltin, kumush, javohir va qimmatbaho sovg‘alarni nazr qiladi. 39 O‘zga yurt xudosining homiyligi bilan qal’alarini himoya qiladi. Uni haqiqiy hukmdor deb bilganlarga izzat–ehtirom bildirib, yuqori mansablarga ko‘taradi. Bunday odamlarga yerlarni mukofot sifatida bo‘lib beradi.

40 Oxirzamon vaqtida Misr shohi Suriya shohiga hujum qiladi. Ammo Suriya shohi jang aravalari, chavandozlari va talay kemalari bilan unga qarshilik ko‘rsatib, toshqin suvlar kabi ko‘p shohliklarni bosib oladi. 41 U go‘zal Isroil o‘lkasini ham zabt etib, minglab xalqlarning boshiga yetadi. Ammo Edom hamda Mo‘ab xalqlari va Ommon* xalqining asosiy qismi Suriya shohining changalidan qochib qutuladi. 42 Ko‘plab shohliklar, shular qatori, Misr ham Suriya istilosi ostida qoladi. 43 Suriya shohi Misrning oltinu kumush xazinalariga va barcha boyliklariga egalik qiladi. Liviyaliklar bilan Habashistonliklar* ham unga qaram bo‘ladilar. 44 Biroq sharq va shimoldan kelgan noxush xabarlar Suriya shohini vahimaga soladi. Bu xabarlardan darg‘azab bo‘lgan shoh yo‘lga otlanib, ko‘p odamlarni qirib tashlaydi. 45 So‘ng dengiz va go‘zal muqaddas tog‘ orasidagi yerlarga borib, u yerda shohona chodirlarini tikadi. Ammo o‘sha joyda jon beradi, unga yordam beradigan hech kim bo‘lmaydi.”

12–BOB

Oxirzamon

1 Farishta* gapini davom ettirdi:

“O‘sha paytda xalqingni himoya qiluvchi buyuk Mikoyil farishta hozir bo‘ladi. Shunda insonlar birlashib xalq bo‘lgandan beri misli ko‘rilmagan dahshatli azob–uqubatlar davri boshlanadi. Ammo o‘sha damlarda sening xalqing orasidan Xudoning kitobiga* ismi yozilgan har bir odam najot topadi. 2 Qora yer bag‘rida yotganlarning ko‘pchiligi uyg‘onadi: kimdir abadiy hayotga erishadi, kimdir sharmandaligu abadiy isnodga duchor bo‘ladi. 3 Donolar musaffo osmon kabi yashnaydilar, odamlarni haq yo‘lga solganlar esa yulduzlar kabi mangu porlayveradilar. 4 Sen esa, ey Doniyor, kitobni muhrlagin–u, bu so‘zlarni oxirzamongacha sir saqla. Bu davr mobaynida ko‘p odamlar o‘zlarini u yoqdan–bu yoqqa urib, yuz berayotgan hodisalarni tushunmoqchi

bo‘ladilar*.”

Doniyorning ikki farishta haqidagi vahiysi

5 Doniyor shunday deb yozdi:

“Men daryoning bo‘yida paydo bo‘lgan yana boshqa ikki farishtani ko‘rdim. Bittasi daryoning bu tomonida, boshqasi u tomonida turar edi. 6 Ularning biri oqimning yuqori qismida turgan zig‘ir libosli farishtadan*:

— Bunday qiyinchiliklar qachongacha davom etadi? Oxiri bormi o‘zi? — deb so‘radi.

7 Zig‘ir libosli farishta ikkala qo‘lini osmonga cho‘zib, barhayot Xudoning nomi bilan qasam ichganini va shunday so‘zlar aytganini eshitdim:

— Bu qiyinchiliklar uch yarim yil* davom etadi. Xudoga qarashli odamlarning kuch–qudrati tamomila yo‘q qilingandan keyin, o‘sha quvg‘inlarning barchasi o‘z nihoyasiga yetadi.

8 O‘sha odamning gaplarini eshitdim–u, tushunmadim:

— Ey hazratim, buning oqibati nima bo‘ladi? — deb so‘radim.

9 U shunday javob berdi:

— Bu to‘g‘rida hech xavotir olma, Doniyor, chunki bu so‘zlar muhrlangan bo‘lib oxirzamonga qadar sir saqlanadi. 10 Bu quvg‘inlar tufayli ko‘p odamlar tozalanib, poklanadi, ammo fosiqlar fosiqligini davom ettiraveradi. Fosiqlarning birontasi ham buni tushunmaydi, donolar esa bularning barchasini anglab oladilar. 11 Kundalik qurbonliklar to‘xtatilib, ko‘p harom–xarish ishlarga sabab bo‘ladigan makruh bir narsa* o‘rnatilgan paytdan boshlab 1290 kun o‘tadi. 12 Oxirgacha, ya’ni 1335 kun o‘tgunga qadar sodiq bo‘lib qolganlar naqadar baxtiyordir. 13 Ey Doniyor, sen esa hayotingni shu zaylda davom ettiraver. Vaqti kelib, olamdan ko‘z yumasan. Oxiratda esa mukofotingni olish uchun tirilasan.”

IZOHLAR

1:1 *Yahudo* — Yahudo qabilasi Isroilning janubiy qismidagi eng katta qabila edi. Shoh Sulaymon vafotidan keyin shimoldagi o‘nta qabila janubdagi Yahudo va Benyamin qabilalaridan ajralib chiqdi (3 Shohlar 11:26-12:24 ga qarang). Yahudo va Benyamin qabilalari janubiy shohlik deb ataladigan bo‘ldi. Janubiy shohlikning poytaxti Quddus bo‘lib qolaverdi, ularning o‘z hukmdorlari bor edi. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi YAHUDO so‘ziga qarang.

1:1 *Yahudo shohi Yohayiqim hukmronligining uchinchi yili* — miloddan oldingi 605 yil.

1:2 *Rabbiy Yohayiqimni Navuxadnazarning qo‘liga berdi* — Yohayiqim uch yil davomida Navuxadnazarga qaram bo‘ldi. Oxiri, u Navuxadnazarga qarshi isyon ko‘tardi. Yohayiqim Quddusda vafot etgan bo‘lishi mumkin (4 Shohlar 24:1-6 ga qarang). Shundan keyin uning o‘g‘li Yohayixin Yahudo taxtiga o‘tirdi. Navuxadnazar uni miloddan oldingi 597 yilda Bobilga asir qilib olib ketdi (4 Shohlar 24:8-15 ga qarang).

1:2 *Bobil* — ibroniycha matnda *Shinar*, Mesopotamiyadagi, ya’ni Dajla va Furot daryolari orasida joylashgan yerlardagi bir hududning qadimgi nomi. Bobil shohligi dastlab shu yerda barpo bo‘lib, keyinchalik ko‘p yerlarni egallagan buyuk shohlik bo‘lgan.

1:3 *mulozim* — qadimda saroy xizmatida bo‘lgan kishi (shu bobning 7, 8, 9, 10, 11, 18–oyatlarida ham bor). Mulozim hukmdorning yoki saroydagi yuqori lavozimdagi amaldorning farmonlarini, topshiriqlarini bajargan va ularning nomidan ish yuritish huquqiga ega bo‘lgan. Bu o‘rindagi ibroniycha so‘z bichilgan erkakka nisbatan ham ishlatilgan. Hukmdorning xonadonidagi ayollar bilan ko‘p muloqot qilish zarurati bo‘lgani uchun bu mulozimlar ko‘pincha bichib qo‘yilar edi.

1:4 *bobil tili* — ibroniycha matnda *xaldey tili*, o‘sha vaqtda Bobil yurti *Xaldeylar yurti* deb ham atalardi.

1:8 *Doniyor shohona yegulik va sharobdan bulg‘anishni xohlamadi…* — qadimgi paytlarda odamlar o‘z xudolariga qurbonlik qilingan hayvonning go‘shtini tanovul qilishardi, sharob ham mana shu qurbonlikka qo‘shib nazr qilinardi. Ehtimol, shoh dasturxonidagi ba’zi bir yeguliklar, Muso qonuniga ko‘ra, harom hisoblangandir (Levilar 11:1-47 ga qarang). Mana shu sabablarga ko‘ra, Doniyor shohona yeguliklarni rad etgan.

1:10 *sizlar* — ya’ni Doniyor va uning do‘stlari Shadrax, Meshax va Abednaxu. Doniyorning do‘stlari ham, Doniyor bilan bir qatorda, shohona yegulikdan voz kechganlari ko‘rinib turibdi.

1:21 *shoh Kurush hukmronligining birinchi yili* — miloddan oldingi 538 yil. Midiya va Fors lashkarlari shoh Kurush boshchiligida Bobil shahrini miloddan oldingi 539 yilda bosib olgan edilar. Shoh Kurush miloddan oldingi 530 yilgacha Bobilda hukmronlik qildi. U Kir ismi bilan ham tanilgan.

2:1 *Navuxadnazar o‘z hukmronligining ikkinchi yili* — miloddan oldingi 603 yil.

2:2 *afsungarlar* — ibroniycha matnda *Xaldeylar*, o‘sha vaqtda Bobilliklar shu nom bilan ham atalardi (shu bobning 10–oyatida ham bor). Xaldeylar folbinlik va sehr–jodu qilishlari bilan nom taratganlari uchun, mana shunday ish bilan shug‘ullanadigan

odamlarga nisbatan ham mana shu termin ishlatilgan.

2:4 *...oramiy tilida dedilar...* — mana shu joydan 7–bobning oxirigacha asl matn ibroniy tilida emas, oramiy tilida yozilgan.

2:15 *shoshilinch* — yoki *shafqatsiz*.

2:26 *...Doniyorning boshqa ismi Beltashazar edi...* — 1:7 ga qarang.

2:27 *rammol* — folbinlarning bir turi. Qadimgi sharqda, xususan, Bobilda rammollar alohida ilmiy layoqatga ega bo‘lgan shaxslar deb qaralar edi. Ularning bashoratlari astrologiya ilmiga — osmon yoritqichlarining holatiga asoslanar edi.

2:34 *o‘z–o‘zidan* — oramiycha matnda *inson qo‘li bilan emas*. Bu ishni Xudo qilgani nazarda tutilgan (shu bobning 45–oyatida ham bor).

2:36-45 Navuxadnazarning tushidagi haykal birin–ketin hukmronlik qiladigan to‘rtta shohlikka ishora qiladi. Xudo bu to‘rttala shohlikni vayron qilib, ularning o‘rniga O‘zining yangi Shohligini barpo qiladi. Xudoning Shohligi butun yer yuziga yoyilib, abadiy turadi (shu bobning 35, 44–oyatlariga qarang). Ko‘p olimlar haykalning to‘rt qismini quyidagicha sharhlashadi: tilla bosh — Bobil shohligi (shu bobning 38–oyatiga qarang), haykalning kumush ko‘kragi va qo‘llari — birlashgan Midiya va Fors shohligi. Bu shohlikka Kurush miloddan oldingi 539 yilda, Bobil qulagandan keyin asos solgan (1:21 izohiga qarang). Haykalning bronza beli va sonlari — miloddan oldingi 330 yillarda Iskandar Zulqarnayn asos solgan Yunon imperiyasini bildiradi. Temir boldirlar — Rim imperiyasidir. Bir qismi loydan, bir qismi temirdan bo‘lgan oyoqlar va oyoq barmoqlari — oldin Rimliklarning qo‘li ostida bo‘lgan hududdagi shohliklarning konfederatsiyasini bildiradi. Boshqa olimlarning talqinlariga ko‘ra esa haykalning to‘rtta qismi Bobil, Midiya, Fors va Yunon imperiyalariga ishora qiladi. Haykalning bir qismi loydan, bir qismi temirdan bo‘lgan oyoqlar va oyoq barmoqlari — Iskandar Zulqarnayn vafotidan keyin ikkiga bo‘linib ketgan Yunon sulolasini bildiradi. Bu sulolalarning biri Misrda, ikkinchisi Suriyada hukmronlik qilgan.

3:1 *Balandligi oltmish tirsak, eni esa olti tirsak...* — balandligi taxminan 27 metrga, eni esa taxminan 3 metrga to‘g‘ri keladi.

3:1 *Durax tekisligi* — bu tekislikning qayerda joylashgani aniq ma’lum emas.

3:3 *Bu barcha amaldorlar...* — oramiycha matnda *Noiblar, ma’murlar, hokimlar, maslahatchilar, xazinabonlar, qonunshunoslar, qozilar va viloyat amaldorlari...*.

3:7 *Cholg‘u asboblari* — oramiycha matnda *Karnay, nay, lira, chang, arfa, doira va boshqa cholg‘u asboblari...*. Oramiycha matnda shu bobning 10, 15–oyatlarida ushbu asboblarning to‘liq ro‘yxati takroran berilgan.

3:8 *Bobilliklar* — oramiycha matnda *Xaldeylar*, o‘sha vaqtda Bobilliklar shu nom bilan ham atalardi.

3:25 *ilohiy zot* — oramiycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *xudolar o‘g‘li* yoki *Xudo o‘g‘li*. Bu ibora samoda yashaydigan mavjudotlarga, jumladan, farishtalarga nisbatan ishlatilgan. Shu bobning 28–oyatida mana shu kimsa oramiycha matnda farishta deb aytilgan.

4:4 *afsungar* — oramiycha matnda *Xaldeylar*. 2:2 izohiga qarang.

4:4 *rammollar* — 2:27 izohiga qarang.

4:5 *...uning Beltashazar degan ismi...* — 1:7 ga qarang.

4:5 *...men sig'inadigan xudoning ismi bilan hamohangdir* — Bobilning bosh xudosi ismi Bel edi (Mardux ismi bilan ham tanilgan).

4:5 *xudolarning ruhi* — yoki *Xudoning Ruhi*.

4:6 *xudolarning ruhi* — yoki *Xudoning Ruhi*.

4:13 *yetti yil* — oramiycha matndan so'zma–so'z tarjimasi *yettita muddat*. Ba'zan Doniyor kitobida *muddat* so'zi bir yilga nisbatan ishlatilgan. Bu oramiycha ibora shu bobning 20, 22, 29–oyatlarida ham bor.

4:15 *xudolarning ruhi* — yoki *Xudoning Ruhi*.

4:16 *Mening tushim...dedim unga men* — ibroniycha matndan so'zma–so'z tarjimasi *Tush...dedi unga shoh*. Bu o'rinda shoh Navuxadnazar o'zi haqida uchinchi shaxsda gapirgan. Ba'zan shohlarning maktublarida bunday usuldan foydalanilgan. Anglashilmovchilikning oldini olish uchun mazkur tarjimada ham maktubning davomi birinchi shaxs tilidan yozilgan, chunki matnning bu qismi 3:31 oyatdan boshlangan shoh maktubining davomidir.

4:25 *...mening boshimga tushdi* — ibroniycha matndan so'zma–so'z tarjimasi *...bularning hammasi shoh Navuxadnazarning boshiga tushdi*. Shu bobning 25-30–oyatlarida shoh Navuxadnazar o'zi haqida uchinchi shaxsda gapirgan. 4:16 izohiga qarang.

4:26 *...saroyimning tomida sayr qilib yurgan edim...* — u zamonlarda uylarning tomi tekis bo'lib, odamlar tomga chiqib dam olishardi.

5:1 *shoh Belshazar* — Navonidusning o'g'li bo'lib, otasi bilan birga hukmronlik qilgan. Navonidus Bobilning eng oxirgi shohi bo'lib, miloddan oldingi 555-539 yillarda hukmronlik qilgan.

5:2 *Katta bobom* — oramiycha matndan so'zma–so'z tarjimasi *Otam*. Bu so'zning ma'nosi *ajdod* yoki *o'zidan oldin o'tgan biror shoh* bo'lishi ham mumkin. Belshazarning otasi Navonidus shoh Navuxadnazar sulolasidan bo'lmagan. Navuxadnazardan to Belshazargacha bir necha shohlar hukmronlik qilgan. Bu oramiycha so'z shu bobning 11, 13, 18–oyatlarida ham bor.

5:2 *...Katta bobom Navuxadnazar...olib kelgan oltin va kumush qadahlar...* — 1:2 ga qarang.

5:2 *kanizaklar* — ibroniycha matnda bu so'zning ma'nosi quyidagicha: kanizaklar qonuniy xotin bo'lmasalar–da, xo'jayinlari ular bilan jinsiy aloqada bo'lishgan. Qadimgi paytlarda bu ayollarning jiddiy qonuniy huquqlari bo'lib, xo'jayinlari ularning erlari sifatida bo'lgan.

5:7 *afsungar* — oramiycha matnda *Xaldeylar* (shu bobning 11–oyatida ham bor). 2:2 izohiga qarang.

5:7 *rammollar* — 2:27 izohiga qarang.

5:7 *...chap qo'l vazirim...* — ya'ni Navonidus va Belshazardan keyingi lavozimdagi odam (shu bobning 1–oyati izohiga qarang).

5:10 *ona malika* — yoki *malika*, oramiychada bu so‘z yoshi katta ayolga nisbatan ishlatilgan bo‘lishi mumkin. Matn mazmuniga ko‘ra, bu ayol Doniyor haqida Belshazar bilmagan narsalarni ham bilgan. Ehtimol, u Navonidusning yoki ancha oldin o‘tib ketgan Navuxadnazarning xotini bo‘lgan.

5:11 *xudolarning ruhi* — yoki *Xudoning Ruhi*.

5:12 *Katta bobongiz uni Beltashazar deb atagan edi* — 1:7 ga qarang.

5:14 *xudolarning ruhi* — yoki *Xudoning Ruhi*.

5:22 *…siz, ey shoh Belshazar, katta bobongizning boshidan o‘tgan bu voqealardan xabardor bo‘la turib…* — oramiycha matnda *…siz uning o‘g‘li, ey shoh Belshazar, bu voqealardan xabardor bo‘la turib…*. Oramiychada *o‘g‘il* so‘zi *avlod* yoki *voris* ma’nolarini ifodalashi mumkin. Shu bobning 2–oyatiga berilgan birinchi izohga qarang.

5:25 *…va PARSIN…* — oramiycha matnda *…UPARSIN…*, ma’nosi *va PARSIN*.

5:28 *PERES, ya’ni «bo‘lingan»…Forslarga berildi* — oramiycha *peres* so‘zi *parsin* so‘zining birlik formasidir. Bu so‘zning *parsin* shakli shu bobning 25–oyatida ishlatilgan. Bu so‘zning ma’nosi *bo‘lingan* demakdir. *Peres* so‘zi oramiychadagi *Fors shohligi* so‘ziga ohangdosh.

5:30 *Bobil* — oramiycha matnda *Xaldeylar*, o‘sha vaqtda Bobilliklar shu nom bilan ham atalardi.

5:30 *…Bobil shohi Belshazar o‘ldirildi* — miloddan oldingi 539 yilda Midiyaliklar va Forslar Bobilni bosib olib, Belshazarni o‘ldirishgan.

5:31 *Midiyalik Doro* — bu hukmdorning shaxsi haqida hech qanday ma’lumot yo‘q. Midiya va Fors davlatlarini birlashtirgan Fors shohi Kurush miloddan oldingi 539 yilda Bobilni bosib olgan edi (1:21 izohiga qarang). Shu bois unga Bobilda “Midiyalik Doro” unvoni berilgan bo‘lishi mumkin. Yoki bu unvon shoh Kurush Bobil hududiga tayinlagan hokimga nisbatan ishlatilgan bo‘lishi ham mumkin. Bu hokim haqida qadimgi Bobil qo‘lyozmalarida aytib o‘tilgan. Doniyor kitobining bir necha joyida aytib o‘tilgan Doroni miloddan oldingi 522-486 yillarda hukmronlik qilgan mashhur Fors shohi Doro bilan adashtirmaslik kerak.

6:1 *shoh Doro* — 5:31 izohiga qarang.

6:28 *…Doro va Fors shohi Kurushning hukmronligi davrlarida…* — yoki *…Doro hukmronligi davrida, ya’ni Fors shohi Kurushning hukmronligi davrida…*. Doro haqida ma’lumot olish uchun 5:31 izohiga qarang. Kurush miloddan oldingi 539-530 yillarda hukmronlik qilgan. Shoh Kurush yana Kir ismi bilan tanilgan.

7:1 *Bobil shohi Belshazar hukmronligining birinchi yili* — miloddan oldingi 554 yil nazarda tutilgan. O‘sha yili Belshazar otasi Navonidus bilan birga hukmronlik qilishni boshlagan edi. Ushbu bobda tasvirlangan voqealar 5–bobdagi voqealardan avval sodir bo‘lgan.

7:3 *to‘rtta bahaybat maxluq* — shu bobning 3-8–oyatlarida tasvirlangan maxluqlar birin–ketin hukmronlik qiladigan to‘rtta shohlikka ishora qiladi. Shoh Navuxadnazar tushida ko‘rgan haykalning to‘rtta qismi ham bu shohliklarni ifodalagan (2:31-35 ga qarang). 2:36-45 izohida o‘sha shohliklar haqida ma’lumot berilgan. To‘rtta maxluqning

hukmronligidan keyin, taxtni Xudo tanlagan inson egallaydi. Xudo unga cheksiz hokimiyat beradi, o‘sha inson abadiy hukmronlik qiladi (shu bobning 13-14–oyatlariga qarang). Shoh Navuxadnazarning tushida haykalga urilgan va katta toqqa aylangan tosh o‘sha hukmdorni va uning abadiy shohligini ifodalaydi (2:35, 44-45 ga qarang).

7:4 *Birinchisi…inson ongi berilgan edi* — birinchi maxluq Bobil shohligini bildiradi. Mazkur oyatdagi maxluqning qismati 4:25-34 da shoh Navuxadnazar boshidan kechirgan ko‘rguliklarga ishora qilayotgan bo‘lishi mumkin.

7:8 *…ularning orasidan o‘sib chiqayotgan yana bir shoxchani…* — shu bobning 7-8–oyatlaridagi shoxlar taxtga o‘tiradigan qudratli hukmdorlarga ishora qiladi. 8–oyatda tasvirlangan shoxcha esa Isroil xalqining Xudosini tahqirlaydigan va o‘zini Xudo deb ataydigan hukmdorni bildiradi (yana 11:36 ga va 2 Salonikaliklar 2:4, Vahiy 13:5-6 ga qarang). Ayrim olimlarning fikri bo‘yicha, to‘rtinchi shohlik — Rim imperiyasi emas, Yunon imperiyasi bo‘lib (2:36-45 izohiga qarang), oyatdagi shoxcha Antiox IV ni bildiradi (8:9-12 ga va o‘sha oyatlarning izohiga qarang).

7:9 *Azaliy Nuroniy* — oramiycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *Kunlarning Qadimgisi* (shu bobning 13, 22–oyatlarida ham bor). Bu ibora nihoyatda donishmand va keksa insonga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni bildirardi. Bu bobda Doniyor mazkur iborani Xudoga nisbatan ishlatadi.

7:10 *kitoblar* — har bir insonning yaxshi–yomon ishlari yozilgan kitoblar. Vahiy 20:11-15 ga qarang.

7:12 *…ma’lum bir vaqtgacha…* — oramiycha matnda *…bir fasl va vaqtgacha….*

7:13 *inson qiyofasidagi bir zot* — oramiycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *inson o‘g‘liga o‘xshagan kimsa*. “Inson o‘g‘li” iborasi insonga yoki inson qiyofasidagi zotga nisbatan ishlatilgan (misol uchun, 8:17 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang). To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi INSON O‘G‘LI iborasiga qarang.

7:19 *to‘rtinchi maxluq* — shu bobning 7-8–oyatlariga qarang.

7:25 *uch yarim yil* — oramiycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *bir muddat, muddatlar va yarim muddat*. Doniyor kitobida *muddat* so‘zi ba’zan bir yilga nisbatan ishlatilgan.

8:1 *Shoh Belshazar hukmronligining uchinchi yili* — miloddan oldingi 552 yil, birinchi vahiydan ikki yil o‘tgandan keyin (7:1 ga qarang). Mazkur bobda tasvirlangan voqealar 5–bobdagi voqealardan avval sodir bo‘lgan.

8:2 *Shushan qal’asi* — bu shahar devorlar bilan o‘ralgan bo‘lib, viloyatning poytaxti edi.

8:3 *…bir qo‘chqor…Uning ikkita uzun–uzun shoxlari bor ekan* — ikki shoxli bu qo‘chqor birlashgan Midiya va Fors shohligiga ishora qiladi.

8:3 *Ikkinchi bo‘lib chiqqan shox birinchisiga qaraganda uzunroq ekan* — uzunroq bo‘lgan shox Fors shohi Kurushni bildiradi. Kurush Midiya va Fors davlatlarini birlashtirgan edi (1:21 izohiga qarang).

8:5 *…bir taka…ulkan bir shox bor edi* — taka Yunon imperiyasiga, takaning ulkan shoxi esa Iskandar Zulqarnaynga ishora qiladi. U miloddan oldingi 330 yilda birlashgan Midiya va Fors shohligini bosib olgan edi.

8:8 *…ulkan shoxi sinib tushdi. Sinib tushgan shoxning o‘rniga…to‘rtta katta shox o‘sib*

chiqdi — shoxning sinib tushishi Iskandar Zulqarnaynning o‘limiga ishora qiladi. O‘sib chiqqan to‘rtta katta shox Iskandarning to‘rtta lashkarboshisini bildiradi. Iskandar Zulqarnayn miloddan oldingi 323 yilda vafot etgach, to‘rtala lashkarboshi uning shohligini bo‘lishib oladilar. Bo‘lingan bu shohliklar Yunoniston, Kichik Osiyo, Suriya va Misr edi.

8:9 *go‘zal Isroil o‘lkasi* — ibroniycha matnda *go‘zal o‘lka*, Isroil yurtiga ishora.

8:9-12 Doniyorga kelgan vahiyning bu qismidagi kichkina shox miloddan oldingi 175-164 yillarda Suriyada hukmronlik qilgan Yunon shohi Antiox IV ga ishora qiladi. Uni Antiox Epifan deb ham atashardi. Miloddan oldingi 167 yilda Antiox IV Quddusni bosib olib, u yerdagi deyarli hamma erkaklarni qirib tashladi, ayollar va bolalarni esa qul qilib oldi. U yahudiylarga ko‘p zulm o‘tkazdi, ularning e’tiqodini yo‘q qilishga astoydil urindi. Sunnat qilish odatini taqiqladi. O‘zini ko‘klarga ko‘tarib, Xudoga tenglashtirdi, Quddusdagi Ma’badni bulg‘adi (9:27 ning oxirgi izohiga qarang), kunda keltiriladigan qurbonliklarga chek qo‘ydi. Shu vaqt mobaynida imonda sobit qolgan ko‘p yahudiylar qurbon bo‘ldi. Miloddan oldingi 165 yilda yahudiylar Antiox IV hukmronligiga qarshi isyon ko‘tarib, ozodlikka erishdilar. 7:8 da oxirzamon davrida hokimiyat tepasiga keladigan murtad bir shoh haqida hikoya qilingan edi, Antiox IV o‘sha murtad shohning jonli namunasidir (7:8 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang).

8:14 *2300 kechayu kunduz* — buni 2300 sutka deb tushunsa bo‘ladi yoki 1150 kecha va 1150 kunduz alohida hisoblangan holda, 1150 sutka deb tushunsa ham bo‘ladi. Ikkinchi talqin quyidagi sabablarga ko‘ra, mantiqqa to‘g‘ri keladi: 1150 kun 7:25 da aytib o‘tilgan uch yarim yilga teng. Qurbonliklar kun davomida ikki mahal, ertalab va kechqurun keltirilgani uchun, kecha va kunduz alohida hisoblangan bo‘lishi mumkin.

8:17 *inson* — ibroniycha matnda *inson o‘g‘li*. Bu o‘rinda shu ibora payg‘ambar ham odam zotidan ekanligini, abadiy yashamasligini, u ham Xudoning kuchiga muhtojligini ko‘rsatish uchun ishlatilgan.

9:1 *Bobil* — ibroniycha matnda *Xaldey*, o‘sha vaqtda Bobil yurti shu nom bilan ham atalardi.

9:1 *Axashverash* — Ezra va Ester kitoblarida aytib o‘tilgan, Kserks ismi bilan ham tanilgan Axashverashdan boshqa shoh.

9:1 *…Midiyalik…Doro…* — 5:31 izohiga qarang.

9:2 *Egamiz Yeremiyo payg‘ambarga aytgan so‘zlariga ko‘ra…* — Yeremiyo 25:11-12, 29:10 ga qarang.

9:3 *…qanorga o‘randim, kulga belanib…* — qanor dag‘al qoramtir mato bo‘lib, echki yoki tuya junidan to‘qilgan. Qanorga o‘ranib olish va kulga belanish umidsizlikni va qayg‘uli holatni ifodalaydi. Ko‘pincha bu harakat Xudodan kechirim so‘rab ibodat qilish va Undan madad tilash bilan birgalikda amalga oshirilgan.

9:16 *muqaddas tog‘* — Quddusdagi Sion tog‘iga ishora. Quddusdagi Ma’bad qurilgan tepalik Sion tog‘i deb atalgan. U yerda Xudo O‘zini Isroil xalqiga ma’lum qilgan. Eski Ahddagi she’riy parchalarda va payg‘ambarlar bitiklarida Sion so‘zi ko‘pincha Quddus shahriga yoki Xudoning xalqiga nisbatan ishlatilgan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi SION so‘ziga qarang.

9:20 *…Xudoning muqaddas tog‘i — Quddus…* — ibroniycha matnda *Quddus* keltirilmagan, qiyoslash uchun shu bobning 16–oyati izohiga qarang.

9:21 *Men uni oldingi vahiyda ham ko‘rgan edim* — 8:16-17 ga qarang.

9:24 *yetmish karra yetti yil* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *70 ta yetti*, 490 yillik davr nazarda tutilgan.

9:24 *muqaddas Ma’bad* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *muqaddaslarning muqaddasi* bo‘lib, Ma’badga, Ma’baddagi qurbongohga yoki oliy ruhoniyga ishora. Qaysi so‘z yoki ibora nazarda tutilganidan qat’i nazar, bu oyat “odamlar yana Ma’badda sajda qila oladilar” degan ma’noni bildiradi.

9:25 *…Xudo moy surtib tanlagan yo‘lboshchi…* — Masih nazarda tutilgan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi MASIH so‘ziga qarang.

9:25 *yetti karra yetti yil* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *7 ta yetti*, 49 yillik davr nazarda tutilgan.

9:25 *Oltmish ikki karra yetti yil* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *62 ta yetti*, 434 yillik davr nazarda tutilgan (shu bobning 26–oyatida ham bor).

9:26 *U erishgan hamma narsa barbod bo‘ladi* — yoki *Hech kim uning o‘rnini olmaydi*.

9:27 *bir karra yetti yil* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *1 ta yetti*, 7 yillik davr nazarda tutilgan.

9:27 *Ma’bad* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *qanot*, Ma’badning ayni bir qismiga yoki Ma’baddagi qurbongohga ishora qilayotgan bo‘lishi mumkin.

9:27 *…Ma’badda makruh bir narsa o‘rnatadi. Bu narsa ko‘p harom–xarish ishlarga sabab bo‘ladi* — ko‘pchilik olimlarning ta’kidlashicha, bu hodisa miloddan oldingi 167 yilda, Yunon shohi Antiox IV hukmronligi davrida yuz bergan. Uni Antiox Epifan deb ham atashardi. U miloddan oldingi 175-164 yillarda Suriyada hukmronlik qilgan. Quddusdagi Ma’badning qurbongohi ustiga xudo Zevsga atab qurbongoh qurdirib, u yerda cho‘chqalarni qurbonlik qilgan. Iso qilgan bashoratga ko‘ra, shunga o‘xshash hodisa oxirzamon davrida ham sodir bo‘ladi (Matto 24:15 ga qarang).

10:1 *Kurush hukmronligining uchinchi yili* — miloddan oldingi 536 yil (1:21 izohiga qarang).

10:1 *Beltashazar deb atalgan Doniyor* — 1:7 ga qarang.

10:1 *Kelajakda albatta sodir bo‘ladigan kuchli to‘qnashuvga oid bo‘lgan bu…* — yoki *Xabar to‘g‘ri edi, ammo uni tushunish juda qiyin edi. Bu….*

10:4 *birinchi oy* — ibroniy kalendarining Nison oyi nazarda tutilgan (Nison oyi Abib oyi deb ham ataladi). Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan martning o‘rtasidan boshlanadi.

10:5 *sof tilladan yasalgan kamar* — yoki *Ufazdan keltirilgan tilladan yasalgan kamar*. Ufaz degan joy haqida hech qanday ma’lumot yo‘q.

10:13 *Men u bilan jang qilib hayallab qolganim uchun…* — ibroniycha matnda *Men Fors shohlari bilan kurashib hayallab qolganim uchun…*, oyatning birinchi qismida va shu bobning 20-21–oyatlarida aytib o‘tilgan himoya qiluvchi farishta bilan bo‘lgan to‘qnashuv nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin.

10:16 *odam qiyofasidagi boshqa birovi* — ibroniycha matnda *odamga o‘xshagan bittasi*. Shu oyatda va 18–oyatda aytilib o‘tilgan bu kimsa 5-6–oyatlardagi zotmi yoki boshqami — aniq emas.

10:19 *Men birinchi ko‘rgan boshqa birovi…* — ibroniycha matnda *U*…. Bu oyatda 5-6–oyatlarda aytib o‘tilgan zot nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin.

11:1 *Midiyalik Doro* — 5:31 izohiga qarang.

11:2 *Farishta* — 10:5-6 da tasvirlangan, mayin zig‘ir matosidan tikilgan libos kiygan farishta.

11:5 *Misr shohi* — ibroniycha matnda *janub shohi*, Misr hukmdori nazarda tutilgan (shu bobning 8–oyatiga qarang). Shu bobning ibroniycha matnida bu hukmdorga nisbatan har doim “janub shohi” iborasi ishlatilgan.

11:6 *Suriya shohi* — ibroniycha matnda *shimol shohi*, Suriya hukmdori nazarda tutilgan (to‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi SURIYA so‘ziga qarang). Shu bobning ibroniycha matnida bu hukmdorga nisbatan har doim “shimol shohi” iborasi ishlatilgan.

11:6 *otasi* — ibroniycha matndan. Qadimiy suryoniycha va lotincha tarjimalarda *o‘g‘li*.

11:16 *go‘zal Isroil yurti* — ibroniycha matnda *go‘zal o‘lka*, Isroil yurtiga ishora (shu bobning 41–oyatida ham bor).

11:22 *oliy ruhoniy* — ibroniycha matnda *ahd shahzodasi*.

11:30 *G‘arb sohillaridan…* — ibroniycha matnda *Kittimdan*…. Bu nom umuman O‘rta yer dengizi bo‘ylarida, ya’ni Isroildan g‘arbda yashaydigan xalqlarni bildirishi mumkin. Bu o‘rinda Rimliklar nazarda tutilganining ehtimoli ko‘proq.

11:31 *…ko‘p harom–xarish ishlarga sabab bo‘ladigan makruh narsani…* — 9:27 ning oxirgi izohiga qarang.

11:37 *ayollar yaxshi ko‘radigan xudo* — xudo Tammuz nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin. Bu xudo Adonis va Osiris nomlari bilan ham yuritiladi. Odamlar, bu xudo ayollarni serpusht qiladi, deb ishonar edilar (Hizqiyol 8:14 ga qarang).

11:38 *qal’alarni himoya qiluvchi xudo* — xudo Zevs haqida aytilayotgan bo‘lishi mumkin.

11:41 *…Edom…Mo‘ab…Ommon…* — Edom O‘lik dengizning janubida, Mo‘ab O‘lik dengizning sharqida, Ommon Iordan daryosining sharq tomonida joylashgan yurtlar edi.

11:43 *Habashistonliklar* — ibroniycha matnda *Kushliklar*. Kush degan joy Misrdan janubda bo‘lib, hozirgi Sudan va Efiopiya mamlakatlarining bir qismini o‘z ichiga olgan edi.

12:1 *Farishta* — 10:5-6 da tasvirlangan, mayin zig‘ir matosidan tikilgan libos kiygan farishta.

12:1 *Xudoning kitobi* — Xudo O‘ziga tegishli bo‘lganlarning ismlarini yozib qo‘ygan kitob.

12:4 *…yuz berayotgan hodisalarni tushunmoqchi bo‘ladilar* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *…bilim ko‘payadi*.

12:6 *zig‘ir libosli farishta* — 10:5-6 da aytib o‘tilgan farishta.

12:7 *uch yarim yil* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *bir muddat, muddatlar va yarim muddat*. Doniyor kitobida *muddat* so‘zi ba’zan bir yilga nisbatan ishlatilgan.

12:11 *...ko‘p harom–xarish ishlarga sabab bo‘ladigan makruh bir narsa...* — 9:27 ning oxirgi izohiga qarang.

XO‘SHEYA

PAYG‘AMBARNING KITOBI

Kirish

Mazkur kitob Xo‘sheya payg‘ambarning nomi bilan atalgan. Xo‘sheya payg‘ambar Amos payg‘ambardan keyin va’z qilgan. U asosan Isroilda*, ya’ni shimoliy shohlikda, shohlik qulashidan oldin faoliyat ko‘rsatgan. Isroil shohligi miloddan oldingi 722 yilda qulagan.

Kitobning dastlabki uch bobida Xo‘sheyaning oilaviy hayoti tasvirlanadi. Xo‘sheyaning oilasi u Isroil yurtida va’z qilgan xabarning jonli surati bo‘lib xizmat qiladi. Xudo O‘z xalqi Isroilning bevafoligini ko‘rsatmoqchi bo‘lib, Xo‘sheyaga: “Fohisha ayolga uylan”, deb amr qiladi. Fohisha ayol Xo‘sheyaga uch farzand tug‘ib beradi. Xo‘sheyaning farzandlariga Xudo Isroil xalqining jazolanishini eslatib turadigan ismlarni qo‘yadi. Xudo Xo‘sheyaga: “Bevafo xotiningni sevgin”, deb amr qiladi, chunki bu sevgi Xudoning bevafo Isroil xalqiga bo‘lgan abadiy sevgisining timsoli bo‘ladi.

Kitobning qolgan qismida Xudoning Isroil xalqi bilan tuzgan ahdiga alohida e’tibor beriladi. Bu ahdga ko‘ra, Xudo va Isroil xalqi bir–biriga sadoqatli, vafodor bo‘lishlari kerak bo‘ladi. Xudo doimo ahd shartlarini bajarib keladi, Isroil xalqi esa har safar ahd shartlarini buzadi. Ular Xudoning yordamiga ishonmay, lashkarining kuchi va boshqa yurtlarning yordami bilan o‘zlarini himoya qilmoqchi bo‘ladilar. Bundan tashqari, butlarga sig‘inib, yaxshi hosil yig‘ib olamiz, mol–qo‘ylarimiz ko‘payadi, deb umidini butlarga bog‘laydilar.

Isroil va Yahudo xalqlari Xudodan yuz o‘girishadi, Xudo ular bilan bu borada da’volashadi, ularni ahdni buzganlikda ayblaydi. Ular qilgan gunohlari uchun jazosini tortishadi.

Ularning gunohlariga qaramay, Xudo O‘z xalqini sevadi. Nihoyat, Xudoning beqiyos sevgisi ularning qalblarini zabt etadi, Xudo va xalq orasidagi munosabat tiklanadi. Xullas, Xo‘sheya kitobi Xudoning mehribonligi va sodiq sevgisi haqidagi kitob, deb aytsak mubolag‘a bo‘lmaydi. Zero, Xudo bu cheksiz sevgisi tufayli O‘zining bevafo xalqidan yuz o‘gira olmaydi.

1–BOB

1 Yahudo yurtida* shohlar Uzziyo, Yo‘tom, Oxoz va Hizqiyo hukmronlik qilgan
davrlarda* Isroil taxtida Yoho‘sh* o‘g‘li Yorubom* o‘tirgan edi. O‘sha vaqt mobaynida
Beri o‘g‘li Xo‘sheyaga Egamiz O‘z so‘zlarini ayon qildi.

Xo‘sheyaning xotini va farzandlari

2 Egamiz dastlab Xo‘sheya orqali Isroil xalqiga gapirishni boshlaganda, unga shunday
degan edi: “Borib fohisha ayolga uylan, u senga begona erkaklardan orttirgan farzandlar
tug‘ib beradi. Zotan, Mening xalqim ham fohishaga o‘xshaydi*. Ular Men, Egangizga
bevafolik qilib, begona xudolarga sajda qilishmoqda.” 3 Xo‘sheya Diblayim qizi
Go‘meraga uylandi. Go‘mera homilador bo‘lib, Xo‘sheyaga o‘g‘il tug‘ib berdi.

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

4 Egamiz Xo‘sheyaga dedi: “O‘g‘lingning ismini Yizril qo‘y. Chunki Yohu qanday qilib
Yizrilda qon to‘kkan bo‘lsa*, tez orada Yohuning xonadonini ham o‘sha ahvolga solib,
yo‘q qilaman. Isroil shohligi barham topadi. 5 O‘sha davrda Men Yizril vodiysida
Isroilning kamonu o‘qlarini sindiraman*.”
6 Go‘mera yana homilador bo‘lib, qiz tug‘di. Egamiz Xo‘sheyaga dedi: “Qizingning
ismini Lo‘ruhamo, ya’ni «Rahmdan bebahra» deb qo‘y. Chunki bundan buyon Men Isroil
xalqiga rahm qilmayman, ularni kechirmayman. 7 Yahudo xalqiga esa rahm qilaman,
ularga najot beraman. Qilichu kamon, jang–jadal, otlaru chavandozlar bilan emas, O‘z
qudratim bilan ularni qutqaraman. Zotan, Men ularning Egasi Xudoman!”
8 Go‘mera qizini ko‘krakdan chiqargach, yana homilador bo‘lib, o‘g‘il tug‘di. 9 Egamiz
Xo‘sheyaga dedi: “O‘g‘lingning ismini Lo‘yomi, ya’ni «Xalqim emas» deb qo‘y. Chunki
Isroil xalqi endi Mening xalqim emas, Men esa ularning Xudosi emasman. 10 Ammo
shunday vaqtlar keladiki, Isroil xalqi dengizdagi qum kabi bo‘ladi, ularni na sanab, na
o‘lchab bo‘ladi. Ularga: «Xalqim emas», deb aytilgan bo‘lsa, kelajakda ular: «Barhayot
Xudoning farzandlari» deb ataladi. 11 Yahudo va Isroil xalqlari qayta birlashadilar. Ular
o‘zlariga bir yo‘lboshchi tanlaydilar. O‘z yurtida tup qo‘yib, palak otadilar. Ha,
Yizrilning* — «Xudo ekkan» xalqning kuni ulug‘ bir kun bo‘ladi.”

2–BOB

1 Egamiz shunday deydi: “Aka–ukalaringizni — Yomi, ya’ni «Mening xalqim», opa–
singillaringizni — Ruhamo*, ya’ni «Rahmdan bahramand» deb chaqiringlar.

Isroil xalqi bevafo Go‘mera timsolida

2 Ey farzandlarim,
Onangiz bilan da’volashing*,
Aybini yuziga soling.
U endi xotin emas Menga,
Men ham er emasdirman unga.
Ayting, yuzidagi upa–eligini artib tashlasin,
Egnidagi uyatsiz kiyimini yechib tashlasin.
Bo‘ldi, fohishaligini bas qilsin.
3 Aks holda, uning kiyimini O‘zim yechib tashlayman,
Onasining qornidan tushganday qip–yalang‘och qilaman.
Yerini bepusht sahroga aylantiraman,
Uning yurtini qaqragan cho‘l qilaman.
Tashnalikdan uni o‘ldiraman.
4 Bolalariga ham rahm qilmayman,
O‘ynashlaridan orttirgan haromi ular.
5 Ha, ularning onasi fohishalik qilgan,
Ularni tuqqan ayol sharmu hayoni yo‘qotgan.
U dedi: «O‘ynashlarim* oldiga ketdim.
Nonu suvimni, junu zig‘ir matolarimni,
Zaytun moyiyu sharobimni,
Menga o‘shalar bergan.»
6 Shuning uchun yo‘lini tikanaklar bilan to‘saman,

O‘tolmaydigan qilib devor quraman.
7 U o‘ynashlarining ketidan quvib yetolmaydi,
Ularni izlab, topolmaydi.
Keyin esa aytadi:
«Birinchi erimning oldiga qaytib boray,
Axir, o‘shandagi holim hozirgidan tuzukroq edi.»
8 Bug‘doyni, sharobu zaytun moyini,
Unga Men berganimni u bilmaydi.
Baalga* nazr qilgan kumushu oltinni
Unga Men sovg‘a qilganimni anglamaydi.
9 Shuning uchun hosil paytida bug‘doyimni tortib olaman,
Yig‘im–terim mavsumida sharobimni olib qo‘yaman.
Badanini yopib turgan junu zig‘ir matolarimni qaytarib olaman.
10 Mana endi uni yalang‘och qilaman,
O‘ynashlarining oldiga chiqarib qo‘yaman,
Qo‘limdan uni hech kim xalos qila olmaydi.
11 Men uning bazmlariga chek qo‘yaman.
Bayramlariyu yangi oy shodiyonalariga,
Shabbatlari va barcha tayinlangan bayramlariga barham beraman*.
12 «O‘ynashlarimning bergan to‘lovi»*, deb o‘ylagan
Uzumzoru anjir bog‘larini buzib tashlayman,
Hammasini to‘qayzor qilaman.
Yovvoyi hayvonlar bog‘larini yo‘q qiladi.
13 U bayramlarda Baalga atab tutatqilar tutatgani uchun,
Uzugu taqinchoqlar bilan bezanib,
O‘ynashlarining ketidan yurgani uchun,
Meni esa tamom esidan chiqarib yuborgani uchun,
Men uni jazolayman!”
Egamizning kalomi shudir.

14 Egamiz shunday deydi:
“Ko‘p o‘tmay Men uning ko‘nglini ovlayman,
Uni sahroga olib borib, shirin so‘zlar aytaman.
15 O‘sha yerda uzumzorlarini qaytarib beraman,
Oxor* soyligini umid eshigi qilaman.
O‘sha yerda u Menga ergashadi,
Yoshligida*, Misrdan chiqqan chog‘ida ergashganday ortimdan yuradi.”

Egamizning O‘z xalqiga bo‘lgan sevgisi

16 Egamiz shunday demoqda: “Ey Isroil xalqi, o‘sha kuni sen Meni «Erim» deb chaqirasan, hech qachon «Xo‘jayinim» demaysan*. 17 Baalning nomini qayta tilingga olmaydigan qilaman. 18 O‘sha kuni yovvoyi hayvonlar, osmondagi qushlar va yerda sudraluvchi maxluqlar bilan ahd tuzaman, ular senga zarar yetkazmaydi. Yurtdagi barcha kamonu qilichlarni, hamma jang qurollarini yo‘q qilaman. Sen tinch, bexatar yashaysan. 19 Men seni O‘zimga abadiy nikohlab olaman. Senga nisbatan adolatli va odil bo‘laman. Seni doim sevaman, mehr–shafqat ko‘rsataman. 20 Senga vafo qilaman, sen

Meni Egang deb bilasan.”

21 Egamiz demoqda:
“O‘sha kuni Men xalqimning iltijolariga javob beraman,
Men osmonga amr qilaman,
Osmon yerga yomg‘ir yog‘diradi.
22 Yer bug‘doy, uzum, zaytun yetishtiradi,
Ular esa hayot bag‘ishlaydi Yizrilga* —
«Xudo ekkan» deb atalgan Mening xalqimga.
23 Ha, Men Yizrilni O‘zim uchun bu yurtga o‘tqazaman.
Lo‘ruhamoga, ya’ni «Rahmdan bebahra» deganga rahm qilaman,
Lo‘yomini, ya’ni «Xalqim emas» deganni «O‘z xalqim» deb atayman*.
U esa «Xudoyim» deb chaqirar Meni.”

3–BOB

Xo‘sheya bevafo xotinini qutqarib, uyiga olib keladi

1 Egamiz menga dedi: “Qani bor, Xo‘sheya! O‘ynashi bor o‘sha suyuqoyoq xotiningga* boshqatdan ko‘ngil qo‘y. Men, Egangiz, Isroil xalqini qanday sevsam, sen ham xotiningni shunday sevgin. Zotan, xalqimning ham ko‘ngli boshqa xudolarga chopadi, hovuch–hovuch mayizni* ularga nazr qilishni xalqim yaxshi ko‘radi.” 2 Shunday qilib, men o‘n besh bo‘lak kumush* va o‘n besh tog‘ora arpaga* o‘z xotinimni sotib oldim*. 3 Unga dedim: “Sen uzoq vaqt davomida menikida yashaysan. Fohishalik qilmaysan. O‘sha vaqt mobaynida birorta erkakka yaqinlashmaysan, men ham senga yaqinlashmayman.” 4 Shu singari, Isroil xalqi ham uzoq vaqt davomida* shohu shahzodasiz, qurbonliklaru butsimon toshlarsiz, efod* va butlarsiz yashaydi. 5 Bundan keyin ular qaytadan Egasi Xudoga va Dovud naslidan bo‘lgan shohga* yuz burishadi. Kelajakda Egamizga qo‘rquv bilan bo‘yin egishadi. Xudoning barakasidan bahramand bo‘lishadi.

4–BOB

Isroil xalqini Egamiz ayblaydi

1 Egamizning da’vosi bor bu yurt aholisiga,
Ey Isroil xalqi, quloq tut Egamizning so‘ziga:
“Bu yurt vafoyu sadoqatni bilmaydi,
Ular Men, Xudoni tan olmaydi.
2 Qachon qaramang la’nat aytishadi,
Aldashadi, odam o‘ldirishadi,
O‘g‘rilik qilib, fahsh ishlarga berilishadi.
Hamma yoqda zo‘ravonlik, qotilliklar qilishadi.
3 Mana shuning uchun yurt xazon bo‘ladi,
U yerda yashovchi xalq halok bo‘ladi.
Nobud bo‘ladi yovvoyi hayvonlar,
Ko‘kdagi qushlaru hatto dengizdagi baliqlar.

Egamiz ruhoniylarni ayblaydi

4 Birontangiz xalqni ayblamang!
Ularga ta’na qilmang!
Mening da’voim sizlarga qarshidir,
Ey ruhoniylar!*
5 Sizlar kechayu kunduz qoqilasizlar,
Hatto payg‘ambarlar ham sizlar bilan birga qoqiladi.
Sizlarni deb Men xalqingizni nobud qilaman!
6 Ana, xalqim Meni bilmagani uchun nobud bo‘lmoqda.
Bu sizning aybingiz, ey ruhoniylar!
Axir, sizlar voz kechdingizlar Meni bilishdan,
Endi Men ham voz kechaman sizdan.
Mening ruhoniylarim bo‘lmaysizlar!
Sizlar Xudoyingizning qonunlarini unutdingizlar,
Shuning uchun Men ham farzandlaringizni unutaman.
7 Ey ruhoniylar, ko‘paygani sari sizning soningiz,
Menga qarshi ko‘proq gunoh qildingiz.
Endi ulug‘vorligingizni sharmandalikka almashtiraman.
8 Axir, sizlar xalqimning gunoh qurbonliklari* bilan
Qorningizni to‘yg‘izdingiz,
Xalqimning qabihliklariga tashnadirsiz.
9 Mana, Men xalqimni ham,
Sizni ham birday jazolayman.
Tutgan yo‘llaringiz,
Qilgan qilmishlaringizga yarasha qaytaraman.
10 Sizlar yeysizlar, ammo qorningiz to‘ymaydi,
Zino qilasizlar, ammo soningiz ko‘paymaydi.
Sizlar Men, Egangizga bo‘ysunmay qo‘ygansiz.

Egamiz butparastlikni hukm qiladi

11 Fahsh, sharobning eski va yangisi
Xalqimni es–hushidan ayirdi.
12 Ular yog‘och butdan vahiy so‘rashadi.
Tayoqdan pand–nasihat olishadi*.
Shahvoniy hirs ularni yo‘ldan urdi,
Ular Men, Xudosiga bevafo bo‘ldilar.
13 Qurbonliklar qilishayotir tog‘ cho‘qqilarida,
Tutatqilar tutatishayotir qirlarda,
Eman, chinor va qayrag‘ochlarning orombaxsh soyalarida.

Ey xalqim, natijada qizlaringiz fohisha bo‘ldi,
Kelinlaringiz zinoga botdi.
14 Ammo Men fohisha qizlaringizni jazolamayman,
Zinokor kelinlaringizning adabini bermayman.
Axir, erkaklarning o‘zi g‘arlar oldiga bormoqda,
Sajdagoh fohishalari* bilan ular qurbonliklar keltirmoqda.

Aytilgan–ku, es–hushidan ayrilgan xalq nobud bo‘ladi, deya.

15 Isroil xalqi Menga bevafolik qilsa ham,
Bu jinoyatga Yahudo xalqi qo‘l urmasin.
Ular sajda qilgani Gilgalga* bormasin,
Bayt–Obunga* ham oyoq bosmasin.
«Xudo shohid», deya qasam ichishmasin.
16 Ha, eshakday o‘jardir Isroil xalqi,
Ko‘p o‘tmay Men, Egangiz, ularni keng dalaga haydab yuboraman,
Ular yaylovdagi yolg‘iz qo‘ziga o‘xshab qolishadi*.
17 Efrayim* xalqi ko‘ngil bog‘ladi butlarga,
Bilganlarini qilishsin, qo‘ying ularni o‘z holiga!
18 Aysh–ishratdan keyin ular fahshga berilishar.
Ularning yo‘lboshchilari behayolikni yaxshi ko‘rar.
19 Quyun ularni supurib ketadi.
Butlarga qilgan qurbonliklari tufayli sharmanda bo‘lishadi.”

5–BOB

1 Egamiz shunday deydi:
“Ey ruhoniylar, eshiting buni!
Diqqat qilgin, Isroil xalqi!
Quloq solgin, shoh xonadoni!
Sizning ustingizdan hukm ketyapti.
Sizlar Mispaxda odamlar uchun tuzoq bo‘ldingiz,
Tovur tog‘ida* yoyilgan to‘r bo‘ldingiz.
2 Qabih ishlarga botib ketdingiz!
Men hammangizning adabingizni beraman.
3 Ey Efrayim*, juda yaxshi bilaman seni,
Isroil, Mendan yashira olmassan o‘z qilmishingni.
Sen, Efrayim, Xudoga bevafo bo‘lding,
Ey Isroil, o‘zingni harom qilding.
4 Men Xudoyingman,
Ammo qilmishlaring Menga qaytib kelishingga yo‘l qo‘ymas.
Men, o‘z Egangni sen bilmaysan,
Chunki qalbing shahvatga to‘lgan*.”

5 Isroilning mag‘rurligi o‘ziga qarshi guvohlik beryapti,
U* jinoyatlari tufayli qulaydi.
Yahudo ham u bilan birga yiqiladi.
6 Isroil Egamizning iltifotini izlaydi,
Qo‘y–mollarini qurbonlik qiladi,
Ammo Egamizni topa olmaydi,
Chunki Egamiz uni tark etgan.
7 U Egamizga xiyonat qildi*,
Begonalardan nikohsiz bolalar tug‘di.

Ko‘p o‘tmay u mulki bilan birga xarob bo‘ladi.

Isroil bilan Yahudo orasidagi urush

8 Egamiz shunday deydi:
“Burg‘u chaling Givoda!
Karnay chaling Ramada!*
Bayt–Obunda* bong uring!
Ey Benyamin, ortingdan dushman kelyapti!
9 Jazo kuni Efrayim xarob bo‘ladi.
Isroil qabilalariga e’lon qilgan bu so‘zlarim
Albatta ro‘yobga chiqadi.
10 Yahudo shahzodalari chegarani buzgan* firibgarlarga o‘xshaydi,
Men ularning ustiga O‘z qahrimni jaladay yog‘diraman.
11 Axir, Efrayim butlarga ergashishni afzal ko‘rdi,
Endi u ezilib, hukmga bardosh bera olmaydi.
12 Men Efrayimni kuyaday yemiraman,
Yahudo xalqini qurtday kemiraman.
13 Efrayim o‘z betobligini tushungach,
Yahudo o‘z yaralarini ko‘rgach,
Efrayim Ossuriyaga* bordi,
Buyuk shohni* yordamga chaqirdi.
Ammo shoh ularni davolay olmaydi,
Yaralariga shifo bera olmaydi.
14 Men Efrayimga sherday hujum qilaman,
Yahudo xalqiga yosh arslonday tashlanaman.
Ularni O‘zim tilka–pora qilaman,
Sudrab, O‘zim bilan olib ketaman.
Ularni hech kim xalos eta olmas.
15 Ular o‘z aybini bo‘yniga olguncha,
Chin dildan Menga intilguncha,
Men O‘z makonimga qaytib ketaman.
Balki qayg‘uli damlarida ular Menga qaytishar.”

6–BOB

Odamlarning soxta tavbasi

1 Bu xalq shunday deydi:
“Kelinglar, Egamizga qaytaylik!
U bizni tilka–pora qildi,
Shifoni ham O‘zi beradi.
Bizni yarador qildi,
Yaralarimizni O‘zi bog‘laydi.
2 Uning huzurida yashay olishimiz uchun,
Ikki kunda bizni hayotga qaytaradi,
Uchinchi kuni oyog‘imizga turg‘izadi.
3 Kelinglar, Egamizni bilishga intilaylik.

Tong otishi muqarrar bo‘lganday,
U albatta bizga zohir bo‘ladi,
Kuz va bahorda yomg‘ir yog‘ishi tabiiy bo‘lganday,
U albatta oldimizga keladi.”

Isroilning soxta sadoqati va oladigan jazosi

4 Egamiz shunday deydi:
“Seni nima qilay, ey Efrayim?!*
Seni nima qilay, ey Yahudo?!
Sening sevging tongdagi tumanday tez g‘oyib bo‘lar,
Sahardagi shudring kabi bug‘lanib ketar.
5 Shuning uchun so‘zlarim bilan seni o‘lguday savaladim,
Payg‘ambarlarim orqali seni chopib tashladim.
Chiqargan hukmim chaqmoq kabi seni uradi.
6 Zero, Men qurbonlikni emas,
Rahm–shafqatni istayman,
Kuydirilgan qurbonliklarni emas,
Meni tanib–bilishingni afzal ko‘raman.

7 Xalqim Odam Atoday* ahdni buzdi,
Evoh, Menga bevafolik qildi.
8 Gilad — yovuzlarning shahridir,
Ko‘chalari qon dog‘lariga to‘ladir.
9 Ruhoniylar qaroqchilarga o‘xshaydi,
Ular pistirmada yotib, qurbonini poylashadi.
Shakam shahri* yo‘lida qotilliklar qilishadi,
Ha, ular mudhish jinoyatlarga qo‘l urdi.
10 Men Isroilda dahshatli hodisani ko‘rdim:
Efrayim bevafolik qildi!
Isroil o‘zini bulg‘adi!

11 Ey Yahudo, sen uchun ham o‘rim payti belgilandi.

Men xalqimni yana farovonlikka erishtirmoqchi bo‘lganimda,

7–BOB

1 Isroilni shifolamoqchi bo‘lib turganimda,
Uning* buzuqligi oshkor bo‘ldi,
Samariyaning jinoyatlari ochildi.
Ular makkorona ish tutishadi,
O‘g‘rilar xonadonlarni o‘marishadi,
Qaroqchilar yo‘lto‘sarlik qilishadi.
2 Qilgan barcha qabihliklari yodimda,
Biroq ular buni xayoliga keltirmaydi.
Mana, ular gunohlarga botishdi,
Ko‘z o‘ngimda bu gunohlar gavdalanadi.

Saroydagi fitnalar

3 Odamlar shohni yovuzliklari bilan xushnud qilar,
Ular beklarni hiylalari bilan shod etar.
4 Ularning hammasi sadoqatsiz va makkor,
Lovullagan tandirga o‘xshaydi.
Novvoy xamirini qorib bo‘lguncha,
Xamir oshib tayyor bo‘lguncha,
Hatto olov kovlashga ham ehtiyoj yo‘q.
5 Shoh ziyofat bergan kuni
Beklar shohga maydan ichirishdi,
Shoh mazaxchilar bilan hamtovoq bo‘ldi.
6 Ularning yuraklari tandirga o‘xshaydi,
Shohga qarshi ular fitna uyushtiradi,
Kechasi bilan g‘azabi cho‘g‘day tutab yotadi,
Saharga kelib, olovday lovullab yonadi.
7 Tandirday qizishgan bu hamma odamlar,
Hukmdorlarini yamlamay yutyaptilar.
Natijada shohlari birin–ketin nobud bo‘lyapti*,
Ammo birontasi ham Menga iltijo qilmayapti.”

Isroil va o‘zga xalqlar

8 Efrayim boshqa xalqlarga qorishgan.
U xom pishgan nonga o‘xshab qolgan.
9 O‘zga xalqlar uning kuchini kesdi,
U esa buni anglamaydi.
Sochlari oqarib bo‘ldi,
U esa buni payqamaydi.
10 Isroilning mag‘rurligi
O‘ziga qarshi guvohlik beradi.
Boshiga tushgan kulfatlarga qaramay
Isroil o‘z Egasi Xudoga qaytmaydi,
Yuzini Unga burmaydi.

11 Egamiz shunday deydi:
“Efrayim kabutarga o‘xshar,
Ham befarosat, ham ovsar.
U Misrdan yordam so‘raydi,
Pir etib Ossuriyaga uchadi.
12 Uchganda, Men unga to‘r tashlayman,
Ovlangan qushday yerga tushiraman.
To‘dalashganini eshitsam, jazosini beraman.
13 Xalqimning holiga voy!
Axir, ular Mendan uzoqlashdi!
Endi nobud bo‘lishadi!
Axir, Menga qarshi bosh ko‘tarishdi!
Ularni xalos qilardim–u,

Ammo Menga yolg‘on gapirishdi.

14 Ular Menga chin dildan iltijo qilmaydi,
Ammo to‘shaklarida yotib, faryod chekishadi.
Butparastlarday badanlarini tilib,
Bug‘doy va sharob talab qilishadi*.
Menga qarshi bosh ko‘tarishadi.
15 Men O‘zim ularni boqdim, kuchaytirdim,
Ular esa Menga qarshi fitna qiladi.
16 Hamma yoqdan madad izlaydi,
Men, Xudoyi Taologa esa yuz burmaydi.
Ular yaroqsiz bir kamonga o‘xshaydi,
Ularga aslo ishonib bo‘lmaydi.
Beklari haqoratli so‘zlar aytganlari uchun
Qilichdan halok bo‘ladi.
Bu qilmishlari uchun
Misrda kulgi bo‘lishadi.”

8–BOB

Butparast Isroil xalqi hukm qilinadi

1 Egamiz shunday deydi:
“Qani bo‘ling, bong uring!
Dushman* burgutday xonadonimga hujum qilmoqda.
Axir, xalqim ahdimni barbod qildi,
Ular qonunimni buzdi.
2 Isroil xalqi Menga faryod qiladi:
«Ey Xudoyim, Seni tan olamiz», deb aytadi.
3 O‘zlari esa ezgulikni rad etishdi,
Dushmanlar ularni ta’qib qiladi.

4 Ular roziligimni so‘ramay shohlar tanlashdi,
Ijozatimni olmay, mulozimlar tayinlashdi.
Oltinu kumushlaridan butlar yasashdi,
Shu orqali boshlariga halokat keltirishdi.
5 Samariyaliklarning oltin buzog‘ini* Men rad etdim!
Ularga qarshi alanga olgandir Mening g‘azabim.
Qachon ular o‘zlarini poklab olishadi?
6 Butni Isroillik hunarmand yasagan–ku,
But Xudo emas!
Samariya shahrining buzog‘i parchalanib tashlanadi.

7 Shamolni ekkan odam bo‘ronni o‘rib olar.
Bug‘doy boshoqsiz bo‘lsa, xalq nonga zor bo‘lar.
Bug‘doyingiz boshoq tukkan taqdirda ham,
Uni begonalar yeb ado qilar.

8 Boshqa xalqlar orasida Isroil ado bo‘ldi,
Qadrsiz sopol idishga u o‘xshab qoldi.
9 Yolg‘iz daydigan qulonday u,
Ossuriyaga yordam so‘rab bordi.
Efrayim* o‘zini o‘ynashlariga sotdi.
10 U boshqa xalqlarga sotilgan bo‘lsa ham,
Men uni yig‘ib olaman.
Ossuriya shohining* zulmi ostida
U tezda xazon bo‘ladi.

11 Efrayim gunohlarini yuvmoqchi bo‘ldi,
Qurbongohlar qurib tashladi.
Qurbongohlar esa gunoh makoni bo‘lib qoldi.
12 Men bu xalqqa ko‘plab qonunlar yozdim,
Biroq qonunlarimni ular yot deb biladi.
13 Ular Men, Egasiga a’lo qurbonliklar keltirishsa ham,
Qurbonlik go‘shtidan tanovul qilishsa ham,
Men ulardan mamnun bo‘lmayman.
Men jinoyatlarini esga olaman,
Gunohlari uchun jazosini beraman.
Ular Misrga qaytib ketadi*.
14 Isroil o‘z Yaratuvchisini unutib, saroylar qurdi.
Yahudo ko‘plab shaharlarni mustahkam qildi.
Men esa shaharlariga o‘t qo‘yaman,
Qal’alarini olovga yem qilaman.”

9–BOB

Isroil xalqi jazolanadi

1 Ey Isroil, bas qil shodligingni!
Boshqa xalqlarday nishonlading sen bayramingni!
Sen Xudoga bevafolik qilding.
Baalga fohishaday* sajda etding,
Olgan hosilingni Baaldan to‘lov deb bilding.
2 Endi xirmonu sharob meshlaring senga yetarlicha ozuqa bermas,
Yangi sharobing chanqog‘ingni bosmas.

3 Sen Egamizning yurtida qolmaysan,
Misrga qaytib ketasan*.
Ha, Ossuriyada harom ovqat yeysan.
4 Egamizga sharob nazr qila olmaysan,
Keltirgan qurbonliklaring Unga ma’qul bo‘lmaydi.
Bunday qurbonliklar azadorning noniga o‘xshaydi*,
Undan yeganlarning hammasi bulg‘anadi.
Zero, keltirgan qurbonliklaring qorin uchun, xolos,

Bunday qurbonliklar Egamizning uyiga kiritilmaydi,
Egamizga ular nazr qilinmaydi.
5 Ey Isroil, endi sen tayinlangan bayramlarni o‘tkaza olmaysan!
Egamizning muqaddas yig‘inlarini nishonlay olmaysan!
6 Sen ofatdan qochib qutulsang ham,
Misr* senga changalini soladi,
Poytaxti Nuf* senga qabr bo‘ladi.
Kumush xazinalaring yantoqqa nasib bo‘ladi,
Xaroba uylaringni tikanak o‘t bosadi.
7 Ey Isroil, bilib qo‘ygin:
Hisob–kitob vaqti keldi!
Jazo olish payti yetdi!
Ko‘plab gunohlaring sababli,
Cheksiz adovating tufayli,
Sen payg‘ambarlarni ahmoq hisoblaysan,
Ruhdan ilhomlangan odamlarni telba deb bilasan.
8 Ey Efrayim*,
Xudoyim payg‘ambarlarni senga posbon qildi.
Ammo sen ularni tuzoqqa tushirding,
Xudosining yurtida ularga adovat qilding.
9 Givoda razillik qilgan ajdodlaringga* o‘xshab qolding,
Ularday yaramas ishlarga berilib ketding.
Ammo Xudo jinoyatingni esga oladi,
Gunohingga yarasha jazoingni beradi.

Isroilning gunohi va uning oqibati

10 Egamiz shunday deydi:
“Men Isroilni ilk bor topganimda,
Sahroda uzum solgan tokni topganday bo‘ldim.
Ha, ota–bobolarini birinchi ko‘rganimda,
Anjirning chillaki mevalarini ko‘rganday bo‘ldim.
Ammo ular Piyor tog‘iga kelganda*,
O‘zlarini sharmanda Baalga bag‘ishladilar.
Ko‘ngil qo‘ygan o‘sha butday jirkanch bo‘lib qoldilar.
11 Efrayimning shuhrati qushday uchib ketadi.
Ularda na farzand tug‘iladi,
Na ayollari homilador bo‘ladi,
Na pushti kamaridan bola bino bo‘ladi!
12 Farzand o‘stirish nasib qilgan taqdirda ham,
Birontasini qoldirmay yo‘q qilaman.
Holiga voy, ularni tark etaman!
13 Men Efrayimni ko‘rganimda,
U Tir shahriga o‘xshardi,
Go‘zal yerda joylashgandi.
Ammo endi Efrayim o‘z bolalarini

Qotil oldiga olib chiqadi.”

14 Ey Egam, bu xalqingga Sendan nima tilay?!
Ayollarini bepusht qilgin,
Emiza olmaydigan qilgin.

15 Egamiz shunday deydi:
“Ularning har bir qabihligi Gilgaldan* boshlangan,
O‘sha yerda nafratlana boshladim ulardan.
Qabih qilmishlari uchun
Ularni yurtimdan haydab chiqaraman.
Endi ularga mehr qo‘ymayman.
Ularning hamma beklari Menga qarshi bosh ko‘targan.
16 Efrayim quladi,
Uning ildizlari quridi,
Meva berishga u ojiz bo‘ldi.
Farzand ko‘rgan taqdirda ham,
Avaylagan zurriyotini o‘ldiraman.”

17 Isroil xalqini Xudoyim rad etadi,
Ular Xudoga itoat qilmadi.
Xalqlar orasida darbadar bo‘lishadi.

10–BOB

Isroil gunohkorligi uchun surgun qilinadi

1 Isroil gurkiragan,
Hosildor tok kabidir.
Ammo hosili ko‘paygani sari,
U ko‘plab qurbongohlar qurdi.
Yurti ravnaq topgani sari,
Butsimon toshlariga zeb berdi.
2 Sadoqatsiz bu xalq endi ta’zirini yeydi.
Egamiz qurbongohlarini vayron qiladi,
Butsimon toshlarini sindirib tashlaydi.

3 Ko‘p o‘tmay ular aytishadi:
“Biz Egamizdan qo‘rqmadik,
Shuning uchun shohimizdan ayrilib qoldik.
Ammo shohning qo‘lidan nima ham kelardi?!”
4 Ular bema’ni gaplar gapirmoqda,
Soxta qasamlar ichib, ahdlar tuzishmoqda.
Natijada egatlardagi zaharli o‘tday,
Da’volar unib chiqmoqda.
5 Samariya ahli*
Bayt–Obundagi* oltin buzog‘idan* xavotir oladi,

Uning uchun ular aza tutishadi.
Butidan xursand bo‘lgan ruhoniylar ham
But surgun bo‘lganidan yig‘lashadi.
6 Butning o‘zi Ossuriyaga olib ketiladi,
Buyuk shohga* taqdim qilinadi.
Efrayim* sharmanda bo‘ladi,
Umidini butga bog‘lagani uchun*
Isroil uyatga qoladi.

7 Samariya shohi suvga g‘arq bo‘lgan payrahaday
Halok bo‘ladi.
8 Isroilning gunohiga sabab bo‘lgan
Obundagi* sajdagohlar yo‘q qilinadi.
Qurbongohlarini yantog‘u tikan bosadi.
Odamlar tog‘larga: “Bizni bosib qolinglar!” deya baqirishadi.
Qirlarga: “Ustimizga qulanglar!” deb yolvorishadi.

Isroil ustidan Egamiz O‘z hukmini e’lon qiladi

9 Egamiz shunday demoqda:
“Ey Isroil, sen Givoda gunoh qila boshlading*,
O‘sha yerda gunohdan chiqmay qoldi sening boshing.
Givodagi jinoyatchilar jazosini olganday,
Sen ham jazodan qochib qutula olmaysan.
10 Men xohlagan paytimda jazoingni beraman.
Senga qarshi xalqlarni birlashtiraman.
Ikki barobar ko‘paygan jinoyatlaring uchun
Dushmanlar senga kishan soladi.

11 Efrayim o‘rgatilgan buzoqqa o‘xshardi,
Yanchishni u xo‘p yaxshi ko‘rardi*.
Mana endi uning go‘zal bo‘yniga,
Men bo‘yinturuq taqaman.
Endi unga omoch torttiraman*.
Qani, Yahudo shudgor qilsin!*
Efrayim* o‘zi uchun mola bossin!
12 Ey Isroil, o‘zingiz uchun solihlik urug‘ini eking,
Cheksiz sevgini o‘rib oling.
Haydalmagan yeringizga ishlov bering,
Vaqt keldi! Men, Egangizga intiling!
Shunda Men oldingizga boraman,
Yomg‘ir yog‘dirganday, sizga najot beraman.

13 Sen yovuzlikni ekding,
Adolatsizlikni o‘rib olding,
Yolg‘onning mevasidan yeding.
Sen o‘z kuchingga tayanganing uchun,

Son–sanoqsiz sipohlaringga ishonganing uchun,
14 Jangu jadallar seni chetlab o‘tmaydi.
Shoh Shalman Bayt–Arbelni jangda vayron qilganday*,
Xotinlarni bola–chaqalari bilan toshga urib o‘ldirganday,
Hamma shaharlaring vayron bo‘ladi.
15 Ey Baytil*, sen qabihliklar qilganing uchun,
Bu kunlar boshingga tushadi.
Tong otgach, ey Isroil, shohing o‘ldiriladi.”

11–BOB

Xudoning isyonkor xalqiga bo‘lgan muhabbati

1 Egamiz shunday deydi:
“Men Isroilni bolaligida yaxshi ko‘rar edim,
O‘z o‘g‘lonimni Misrdan chaqirib olgan edim*.
2 Uni qancha ko‘p chaqirsam,
Mendan* shuncha ko‘p uzoqlashardi.
Baalga qurbonliklar keltirardi,
Butlarga tutatqilar nazr qilardi.

3 Efrayimga* yurishni Men o‘rgatgan edim,
Uni qo‘llarimda ko‘tarib yurgan edim.
Ammo qilgan g‘amxo‘rligimni u bilmadi.
4 Men esa uni mehr ila yetaklagandim,
Muhabbat rishtalari ila olib yurgan edim.
Bo‘ynidan bo‘yinturuqni* olib tashlagandim,
Muloyimlik bilan uni boqqandim.

5 Xalqim tavba qilishdan bosh tortdi.
Shuning uchun Men ularni
Endi Misrga jo‘natib jazolayman*,
Ha, zolim Ossuriyaga tobe qilaman.
6 Shaharlarida qilich hukm suradi,
Darvozalarining tambalarini yo‘q qiladi.
Yovuz rejalari tufayli xalqim qilichdan halok bo‘ladi.
7 Qachon qaramang, ular Mendan yuzini o‘girishadi.
Payg‘ambarlarim xalqni Menga qaytishga da’vat qilsa–da,
Xalq Mendan — Xudoyi Taolodan madad tilamaydi*.

8 Ey Efrayim, qanday qilib sendan voz kechay?!
Ey Isroil, qanday qilib seni tashlab ketay?!
Admani yo‘q qilganimday, seni yo‘q qila olarmikanman?!
Zavo‘yimga* qilganimni senga qila olarmikanman?!
Bunday qilishga yuragim betlamas aslo!
Senga bo‘lgan mehrim uyg‘ondi.
9 Yo‘q, sochmayman senga qahr–g‘azabimni,

Ey Efrayim, qayta barbod qilmayman seni,
Zero, Men Xudoman, inson emas,
Orangizdagi Muqaddas Xudoman,
Oldingizga jahl bilan bormayman.

10 Men, Egangiz, sherday o‘kiraman,
O‘shanda xalqim ortimdan ergashadi,
Ovozimni eshitgach, farzandlarim g‘arbdan shoshib kelishadi.
11 Ular qushlarday uchib keladi Misrdan,
Kaptarlarday yetib keladi Ossuriya yurtidan*.
Men ularni uylariga eltib qo‘yaman.
— Egamizning kalomi shudir. —

Isroil va Yahudoni Xudo ayblaydi

12 Efrayim atrofimni yolg‘on bilan o‘rab tashladi,
Isroil xonadoni Meni hiylaga ko‘mib tashladi.
Yahudo xalqi Menga qarshi bosh ko‘tardi,
Men, Muqaddas Xudoga ular itoat qilmayapti*.”

12–BOB

1 Efrayim* garmsel* boqib yurar,
Kun bo‘yi sharqdan esgan shamol ketidan quvar.
Yolg‘onu zo‘ravonlikni u orttirar.
Ossuriya bilan sulh tuzib,
Zaytun moyini Misrga jo‘natar.
2 Yahudoga Egamiz da’vo qiladi.
Yoqub naslining* ta’zirini U beradi,
Tutgan yo‘liga yarasha uni jazolaydi.

3 Onasining qornidayoq Yoqub akasi bilan talashgan*,
Ulg‘aygach esa Xudo bilan olishgan*.
4 Ha, farishta* bilan olishib, uni yenggan edi,
Keyin yig‘lab, iltifot qilishini so‘ragandi.
Baytilda* Yoqub Xudoni topgandi,
O‘sha yerda Xudo bilan suhbat qurgandi*.
5 Parvardigori Olam — Egamiz O‘shadir,
Egamizdir Uning nomi!

6 Ey Yoqub nasli, Xudoyingizga qayting.
Sevgi va adolatga intiling,
Sabr–toqat ila Xudodan umid qiling.

7 Egamiz shunday deydi:
“Xalqim tarozidan urgan savdogarga o‘xshaydi,
Firibgarlik qilishni ular xo‘p yaxshi ko‘radi.
8 «O, men boyman,

— deb maqtanasan, ey Efrayim. —
Men o‘zimga davlat orttirdim,
Borimni peshana terim bilan topdim.
Hech kim meni gunohda ayblay olmas.»
9 Ammo Egangiz Xudo — Menman,
Seni Misrdan olib chiqqanman.
Men senga sahroda zohir bo‘lar edim,
O‘sha davrdagiday seni yana chodirlarda yashattiraman*.

10 Men payg‘ambarlarga gapirgandim,
O‘zim ularga ko‘p vahiylar bergandim,
Ular orqali seni, ey xalqim, ogohlantirgan edim.
11 Ammo Giladdagi* yovuzlik to‘xtamadi,
Gilgalda* buqalar
Butlarga atalib hamon qurbonlik qilinmoqda.
Shuning uchun Gilad ahli albatta barham topadi,
Gilgaldagi qurbongohlar buzib tashlanadi,
Ular shudgor qilinadigan dalalardan
Uloqtirib tashlangan toshlarday bo‘lib qoladi.”

12 Yoqub Oram* yurtiga qochib bordi*,
Xotin olish uchun u* qulday ishladi,
Qalin evaziga qo‘ylar boqdi*.
13 Egamiz vaqti kelib payg‘ambar* yubordi,
Yoqub naslini* Misrdagi qullikdan olib chiqdi,
O‘sha payg‘ambari orqali ularni boqdi.
14 Ammo Efrayim Egamizni qattiq ranjitdi.
To‘kkan qon uchun Efrayimni Rabbiy jazolaydi,
Uni haqoratlagani uchun adabini beradi.

13–BOB

Isroil ustidan chiqarilgan so‘nggi hukm

1 Egamiz shunday deydi:
“Ilgari Efrayim* gapirganda hammani titroq bosardi,
Isroilda uning martabasi ulug‘ edi.
Ammo Efrayim Baalga sajda qilib, gunoh orttirdi,
Shunday qilib, o‘zini o‘limga mahkum etdi.
2 Hozir ham xalqim gunoh ustiga gunoh qilishar.
O‘zlariga butlar yasashar,
Kumushdan mahorat bilan sanamlar ishlashar*,
Bularning barchasi bor–yo‘g‘i hunarmandning ishi–ku!
Mening xalqimga shunday deb aytishyapti*:
«Butlarga qurbonliklar keltiringlar!
Oltin buzoqlarni o‘pinglar!*»

3 Shuning uchun ular tonggi tumanday bo‘ladi,
Birpasda g‘oyib bo‘ladigan shudringga o‘xshab qoladi.
Shamol xirmondan uchirgan to‘ponday ular g‘oyib bo‘ladi,
Mo‘ridan chiqadigan tutunga o‘xshab qoladi.

4 Ammo Egangiz Xudo — Menman.
Ey Isroil, seni Misrdan olib chiqqanman.
Mendan boshqa Xudoni sen bilmaysan,
Mendan boshqa yo‘qdir najotkoring.
5 Men sahroda* senga g‘amxo‘rlik qildim,
Suvsiz qaqragan cho‘lda seni boqdim.
6 Serhosil o‘lkada qorningni to‘yg‘izdim*,
Ammo qorning to‘ygach, manman bo‘lib ketding,
Shu sababdan sen Meni unutding.
7 Endi Men yo‘lingni qoplonday poylayman,
Senga bir sherday hujum qilaman.
8 Bolalaridan ayrilgan ona ayiq kabi tashlanaman,
Seni tilka–pora qilaman.
O‘sha joydayoq seni sherday g‘ajiyman,
Yirtqichga o‘xshab seni qonga belayman.

9 Ey Isroil, o‘z boshingga o‘zing balo orttirding,
Axir, Menga — O‘z Madadkoringga qarshi chiqding.
10 Shaharlaringni qutqaradigan shohing qani?!
«Bizga shohu hokimlar ber», deb so‘ragan boshliqlaring qani?!
11 Men jahl ustida senga shohlarni berdim,
G‘azabga minganimda ularni olib tashladim.

12 Efrayimning jinoyati yozib qo‘yilgan,
Ha, uning gunohi kitobga bitilgan.
13 Isroilning yashashga imkoniyati bor edi,
Ammo u nodon bolaga o‘xshadi,
Onani to‘lg‘oq tutganda,
U qorindan chiqishni xohlamadi.

14 Men bu xalqni o‘liklar diyoridan qutqararmikanman?!
Ularni o‘limdan xalos qilarmikanman?!*
Ey o‘lim, qirg‘in olib kelgin!
Ey o‘liklar diyori*, halokatli kuchingni ko‘rsatgin!*
Endi Men rahm–shafqat qilmayman.”

15 Isroil qarindoshlari orasida
Serpusht va farovon bo‘lsa–da,
Egamiz uning ustiga sharq shamolini yuboradi,
Sahrodan esgan garmselni* jo‘natadi.
Isroilning bulog‘ini quritadi,

Uning chashmasini qovjiratadi.
Xazinasidagi qimmatbaho ziynatlarini tortib oladi.

14–BOB

1 Samariya aholisi* o‘z Xudosiga qarshi bosh ko‘tardi,
Endi ular gunohining jazosini tortadi.
Ular qilichdan halok bo‘ladi,
Go‘daklarini dushmanlar yerga urib o‘ldiradi,
Homilador ayollarning qorinlarini yoradi.

Xo‘sheya Isroil xalqiga xitob qiladi

2 Ey Isroil, Egang Xudoga qaytgin!
Axir, gunoh tufayli sen qulading.
3 Gapingni tayyorlab, Egamizga qayt.
Sen Unga shunday deb ayt:
“Gunohlarimizdan kechib yuborgin,
Ibodatimizni qabul qilgin.
Qurbongohingda buqalarni qurbonlik qilganday,
Biz Senga madhiyamizni nazr qilamiz.
4 Ossuriya bizga najot bermaydi,
Biz jangovar otlarga minmaymiz.
Qo‘l bilan yasalgan butlarni
Endi biz «xudolarimiz» deb atamaymiz.
Ey Egamiz, biz — yetimlarga
Faqat Sen rahm–shafqat qilasan.”

Isroilga Egamiz yangi hayot va’da qiladi

5 Egamiz shunday deydi:
“Men xalqimga shifo berib,
Ularni bevafolikdan qaytaraman,
Ularga qayta ko‘ngil qo‘yaman,
Men jahldan tushdim.
6 Men Isroil uchun shudringday bo‘laman,
Shunda Isroil nilufarday ochiladi,
Lubnon o‘rmoniday tomir otadi.
7 Ularning novdalari o‘sib chiqadi,
Zaytun daraxtidek ko‘rkam bo‘ladi,
Lubnon sadriday muattar hid taratadi.
8 Ularning soyasida xalqlar yashaydi.
Isroil mo‘l bug‘doy yetishtiradi,
Ular uzumzorday ko‘p hosil berishadi,
Lubnon sharobiday mashhur bo‘lishadi.

9 Ey Efrayim*, Men butlaringga aslo o‘xshamayman!*
Sening ibodatlaringga javob beraman,
Senga g‘amxo‘rlik qilaman.

Men doim yashil sarv daraxti kabidirman*,
Olgan mo‘l hosilingning manbaidirman.”

Xotima

10 Kim dono bo‘lsa,
Bu yerda yozilgan so‘zlarni tushunadi,
Kim fahm–farosatli bo‘lsa,
Bularning hammasini anglab oladi.
Egamizning yo‘llari to‘g‘ridir.
Solihlar Uning yo‘llaridan yuradi,
Isyonchilar esa qoqilib tushadi.

IZOHLAR

Isroil — mazkur kitobda shimoliy shohlik *Isroil* degan nom bilan, janubiy shohlik esa *Yahudo* degan nom bilan yuritilgan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi ISROIL va YAHUDO so‘zlariga qarang.

1:1 *Yahudo yurti* — mazkur kitobda janubiy shohlik *Yahudo* degan nom bilan, shimoliy shohlik esa *Isroil* degan nom bilan yuritilgan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi YAHUDO va ISROIL so‘zlariga qarang.

1:1 *…Uzziyo, Yo‘tom, Oxoz va Hizqiyo hukmronlik qilgan davrlar…* — miloddan oldingi 781-687 yillar.

1:1 *Yoho‘sh* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Yo‘sh*.

1:1 *Yorubom* — miloddan oldingi 783-743 yillarda hukmronlik qilgan.

1:2 *…Mening xalqim ham fohishaga o‘xshaydi* — Eski Ahdda zino yoki fahsh so‘zlari ko‘pincha majoziy ma’noda ishlatilgan bo‘lib, Egamizga xiyonat qilishni va boshqa xudolarga sig‘inishni bildiradi. Xo‘sheya bilan xotinining orasidagi munosabat Egamiz bilan Isroil xalqi orasidagi munosabatning timsoli bo‘lib xizmat qiladi.

1:4 *…Yohu qanday qilib Yizrilda qon to‘kkan bo‘lsa…* — lashkarboshi Yohu Isroilning yangi shohi qilib tayinlangandan keyin, Egamizning amriga ko‘ra, Isroil shohi Yoramni o‘ldirdi. So‘ng u Yoramning qabih otasi Axab xonadonini qirib tashladi (4 Shohlar 9:1-10:31 ga qarang). Bu voqealar Yizril shahrida yuz bergan edi. Keyinchalik Yohu ham, uning zurriyotidan bo‘lgan shohlar ham Xudoga butun qalbi bilan itoat etmay, butlarga sajda qildilar. Shuning uchun, mazkur oyatda bayon qilinishicha, Xudo ularni Axab xonadonining ahvoliga solmoqchi. Haqiqatan ham, Yorubomning o‘g‘li Zakariyo o‘ldirilgandan keyin, Yohuning sulolasi barham topdi (4 Shohlar 15:8-12 ga qarang).

1:4-5 *Isroil shohligi barham topadi.* [5]*…Isroilning kamonu o‘qlarini sindiraman* — miloddan oldingi 722 yilda Ossuriya shohi Shalmanasar Isroilga, ya’ni shimoliy shohlikka hujum qilib, poytaxti Samariyani zabt etdi. So‘ng Isroil xalqining aksariyat qismini Ossuriyaga surgun qildi (4 Shohlar 17:1-6 ga qarang). Shunday qilib, shimoliy shohlik tag–tomiri bilan yo‘q bo‘lib ketdi.

1:11 *Yizril* — Isroil so‘ziga ohangdosh bo‘lgan bu nom “Xudo ekadi” degan ma’noni bildiradi. Shu bobning 4–oyatida bu ism hukm haqidagi xabarni ifodalasa (o‘sha oyatning izohiga qarang), ushbu oyatda umid haqidagi xabarni bildiradi.

2:1 *Yomi…Ruhamo* — Xudo Isroil xalqini qayta tiklashini, ularga yana baraka berishini bildiradigan ismlar. Ibroniycha matnda shu kitobning 1:6, 9–oyatlarida bu ismlarga inkor ma’nosini ifodalovchi *lo‘* old qo‘shimchasi qo‘shilgan. Lo‘ruhamo va Lo‘yomi ismlari Xudo Isroil xalqining boshiga keltiradigan jazoni bildiradi.

2:2 *Ey farzandlarim, Onangiz bilan da’volashing…* — Xo‘sheya o‘z farzandlarini xotini Go‘merani qilgan bevafoliklari uchun ayblashga chaqiradi. Bu o‘rinda Go‘mera — Isroil xalqining, Xo‘sheya esa Egamizning timsolidir. Isroil xalqi Egamizga qilgan bevafoliklari uchun Egamiz ulardan yuz o‘girgan edi (yana 1:2 izohiga qarang).

2:5 *O‘ynashlarim* — Kan’on xalqlarining xudolari nazarda tutilgan. Isroil xalqi bu

xudolarga topingan va ulardan yomg‘ir, serhosil dalalar va nasldor mol–qo‘ylar so‘ragan.

2:8 *Baal* — Kan’ondagi xalqlar sajda qilgan hosildorlik xudosi bo‘lib, erkak qiyofasida tasavvur qilingan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi BAAL so‘ziga qarang.

2:11 *Men uning bazmlariga…barham beraman* — xalq asirlikka olib ketilgandan keyin o‘zlarining yurtida nishonlangan bayramlar va bazmlardan ularda faqatgina xotiralar qoladi.

2:12 *«O‘ynashlarimning bergan to‘lovi»* — Isroil xalqi, bizga mo‘l hosilni Kan’on xalqlarining xudolari bergan, deb noto‘g‘ri o‘ylaganlar.

2:15 *Oxor* — ibroniychadagi ma’nosi *kulfat*. Yoshua 7:24-26 ga qarang.

2:15 *Yoshligida* — Egamiz Isroil xalqini Misrdagi qullikdan olib chiqqan davrga ishora. Isroil xalqi Egamizga ergashib, Sinay sahrosiga borgan va Egamiz Sinay tog‘ida ular bilan ahd tuzgan (Chiqish 19:1-8 ga qarang).

2:16 *…hech qachon «Xo‘jayinim» demaysan* — ibroniycha matnda *…hech qachon “baal”im demaysan*. “Baal” Kan’on xudosining nomi bo‘lib, “xo‘jayin” degan ma’noni ifodalaydi. Ibroniylarda ayol kishi eriga “erim” yoki “xo‘jayinim” deb murojaat qilgan. Bu so‘zlar keng qo‘llanilgan. Kelajakda Isroil xalqi vafodor ayolday, o‘zini butunlay Xudoga bag‘ishlaydi. Ular Baaldan yordam so‘ramaydilar, hatto uning nomini tilga ham olmaydilar.

2:22 *Yizril* — 1:11 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

2:23 *…«Rahmdan bebahra» deganga rahm qilaman…«Xalqim emas» deganni «O‘z xalqim» deb atayman* — shu bobning 1–oyatiga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

3:1 *o‘sha suyuqoyoq xotining* — 1:2-3 ga qarang.

3:1 *hovuch–hovuch mayiz* — qadimgi paytlarda odamlar uzumlarni quritgandan keyin, qoqilarni hovuchlarida qattiq siqib, dumaloq shakl berganlar. Shu tariqa qoqilar uzoq vaqt saqlangan va kundalik iste’mol qilinadigan yegulik bo‘lgan. Bularni odamlar Kan’on xalqlarining xudolariga nazr qilardilar. Chunki xalq, o‘sha xudolarga topinsak, ular bizga mo‘l hosil beradi, deb ishonardi.

3:2 *o‘n besh bo‘lak kumush* — taxminan 170 grammga to‘g‘ri keladi.

3:2 *o‘n besh tog‘ora arpa* — ibroniycha matnda *bir ho‘mr va bir letek*, ya’ni *bir yarim ho‘mr*. Bu taxminan 330 litrga to‘g‘ri keladi.

3:2 *…o‘z xotinimni sotib oldim* — chamasi, Go‘mera cho‘ri bo‘lib qolgan, Xo‘sheya esa uni qaytib sotib olgan. O‘sha paytda qulu cho‘rining narxi 30 bo‘lak kumush edi (Chiqish 21:32 ga qarang). Xo‘sheya narxning yarmini kumush bilan to‘lagan. Bunga qo‘shib bergan 15 tog‘ora arpaning qiymati ham 15 kumush bo‘lakka to‘g‘ri kelgan bo‘lishi mumkin (4 Shohlar 7:1, 16 ga qarang).

3:4 *…Isroil xalqi ham uzoq vaqt davomida…* — Isroil xalqining kelajakda surgun qilinishiga ishora. Isroil xalqi bir paytning o‘zida ham Kan’on xalqlarining xudolariga, ham Egamizga sajda qilgani uchun, ularning shohligi va diniy urf–odatlari barham topadi.

3:4 *efod* — odatda bu so‘z oliy ruhoniy kiyadigan maxsus kiyimga nisbatan ishlatilgan (Chiqish 28:3-14 ga qarang). Efodga ko‘krakpech mahkamlanardi, ko‘krakpech xaltasida Urim va Tummim degan muqaddas narsalar saqlanardi. Ayrim hollarda ruhoniylar Xudoning irodasini bilish uchun Urim va Tummimdan foydalanishardi (1 Shohlar 23:9-12 oyatlarga va Chiqish 28:15 ning ikkinchi izohiga qarang). Ammo *efod* so‘zi odamlar sajda qilishda yoki fol ochishda ishlatgan buyumni bildirishi ham mumkin (Hakamlar 8:27 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang). Chamasi, bu o‘rinda Xo‘sheya *efod* so‘zining ikkinchi ma’nosini ishlatgan.

3:5 *Dovud naslidan bo‘lgan shoh* — bir kun kelib, shoh Dovudning zurriyoti Xudoning jamiki xalqi ustidan hukmronlik qiladi (Yeremiyo 30:9, Hizqiyol 34:24 ga qarang). Dovudning o‘g‘li Sulaymonning o‘limidan so‘ng Isroilning o‘nta qabilasi Dovud sulolasini rad etib, o‘z shohligini barpo qilgan edi. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi ISROIL va YAHUDO so‘zlariga qarang.

4:4 *Mening da’voim sizlarga qarshidir, Ey ruhoniylar!* — yoki *Sizning xalqingiz ruhoniylarni ayblovchilarga o‘xshaydi*.

4:8 *gunoh qurbonliklari* — birortasi bilmay qilgan gunohi uchun Xudodan kechirim so‘rab keltirgan qurbonligi. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi QURBONLIK so‘zi ostida berilgan GUNOH QURBONLIGI iborasiga qarang.

4:12 *Tayoqdan pand–nasihat olishadi* — ba’zan tayoqlar fol ochish uchun ishlatilgan (misol uchun, Hizqiyol 21:21 ga qarang).

4:14 *Sajdagoh fohishalari* — o‘sha paytlarda Kan’ondagi butparast xalqlar o‘z sajdagohlarida diniy vazifalardan birini fahsh orqali bajarardilar. Butparast xalqlarning udumlariga ko‘ra, odamlar fohishalar va fohishlar bilan jinsiy aloqa qilish orqali o‘z xudolariga topinardilar, xudolaridan farovonlik ato qilishni so‘rardilar. Lekin Egamiz Isroil xalqiga bu yo‘l bilan sajda qilishni qat’iyan man etgan (Qonunlar 23:17-18 ga qarang).

4:15 *Gilgal* — Isroil xalqi Gilgalda butlarga topinish uchun sajdagoh qurgan edi (9:15, 12:11 ga qarang).

4:15 *Bayt–Obun* — ibroniychadagi ma’nosi *qabihlik uyi*. Bu o‘rinda Xo‘sheya kinoya bilan Baytilga ishora qilgan. Baytil so‘zining ma’nosi *Xudoning uyi* demakdir (Ibtido 28:10-19 ga qarang). Ammo Isroil xalqi Baytilni butparastlik o‘chog‘iga aylantirgani uchun, muallif bu shaharni qabihlik uyi deb atamoqda (3 Shohlar 12:28-33, 4 Shohlar 10:29, Amos 7:13 ga qarang). Yana 10:5-8 ga qarang.

4:16 *…ularni keng dalaga haydab yuboraman, Ular yaylovdagi yolg‘iz qo‘ziga o‘xshab qolishadi* — Isroil, ya’ni shimoliy shohlik aholisining Ossuriyaga asirlikka olib ketilishiga ishora bo‘lsa kerak (1:4-5 ning izohiga qarang). Yana 9:3, 11:5 ga qarang.

4:17 *Efrayim* — Efrayim qabilasi Isroilning shimoliy qismidagi eng katta va nufuzli qabila bo‘lgani bois, Eski Ahdning ba’zi o‘rinlarida Efrayim degan nom Isroilga, ya’ni shimoliy shohlikka nisbatan ishlatilgan. Bu shohlikning poytaxti Samariya edi. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi EFRAYIM so‘ziga qarang.

5:1 *…Mispax…Tovur tog‘i…* — bu o‘rinda Mispax so‘zi Iordan daryosining sharq tomonida bo‘lgan tog‘li Gilad o‘lkasidagi shaharga ishora qiladi (Hakamlar 11:29 ga

qarang). Tovur tog‘i Iordan daryosining g‘arb tomonida bo‘lib, Jalila ko‘lidan qariyb 20 kilometr janubi–g‘arbda joylashgan. Ikkala joy ham Isroil, ya’ni shimoliy shohlik hududidagi o‘rmonli yerlar bo‘lib, bu yerlarda ovchilar to‘rlar bilan qushlarni ovlagan bo‘lishlari mumkin. Xalqni butlarga sajda qilishga yetaklagan yo‘lboshchilar qush ovlagan ovchilarga o‘xshatilgan.

5:3 *Efrayim* — 4:17 izohiga qarang.

5:4 *...qalbing shahvatga to‘lgan* — Eski Ahdda zino yoki fahsh so‘zlari ko‘pincha majoziy ma’noda ishlatilgan bo‘lib, Egamizga xiyonat qilishni va boshqa xudolarga sig‘inishni bildiradi. O‘sha paytlarda Kan’ondagi butparast xalqlar o‘z sajdagohlarida diniy vazifalardan birini fahsh orqali bajarardilar. Butparast xalqlarning udumlariga ko‘ra, odamlar fohishalar va fohishlar bilan jinsiy aloqa qilish orqali o‘z xudolariga topinardilar, xudolaridan farovonlik ato qilishni so‘rardilar.

5:5 *U* — ibroniycha matnda *Isroil va Efrayim*, 4:17 izohiga qarang.

5:7 *U Egamizga xiyonat qildi...* — 1:2, 2:2-5 ga qarang.

5:8 *Burg‘u chaling Givoda...Ramada!* — dushman hujum qilayotganda, xalqni ogohlantirish uchun burg‘u chalinardi. Givo va Rama shaharlari Benyamin qabilasi hududida joylashgan edi.

5:8 *Bayt–Obun* — 4:15 ning ikkinchi izohiga qarang.

5:10 *...chegarani buzgan...* — qadimgi Isroilda birortasi o‘z yerini ajratib olish uchun toshlardan chegara qilib qo‘yardi. Agar kimdir bu toshlarni joyidan siljitsa, qo‘shnisining ota–bobosidan qolgan yerni u o‘g‘irlayotgan hisoblanardi va bu og‘ir jinoyat edi (Qonunlar 19:14, 27:17 ga qarang). Bu o‘rinda mazkur ibora majoziy ma’noda ishlatilgan bo‘lib, Yahudoning yo‘lboshchilari ham Isroilning yo‘lboshchilariga o‘xshab o‘z xalqini butlarga sajda qilishga yetaklaganiga ishora qiladi. Yo‘lboshchilarning bu qilmishi oqibatida, Yahudo xalqi ham Isroil singari Xudodan yuz o‘girdi. Shu bobning 4-5–oyatlariga va 4:15, 6:4 ga qarang.

5:13 *Ossuriya* — qadimgi qudratli shohlik. Uning poytaxti Naynavo shahri hozirgi Iroqning shimolida joylashgan edi. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi OSSURIYA so‘ziga qarang.

5:13 *Buyuk shoh* — Ossuriya shohi Tig‘latpilasar nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin (4 Shohlar 15:19 ga qarang). Tig‘latpilasar miloddan oldingi 745-727 yillarda hukmronlik qilgan.

6:4 *Efrayim* — 4:17 izohiga qarang.

6:7 *...Odam Atoday...* — yoki *...Adam shahrida...*, ammo bu shahar Muqaddas Kitobda faqatgina bir marta aytib o‘tilgan (Yoshua 3:16 ga qarang). Odam Ato Adan bog‘ida Xudoga itoatsizlik qilgan edi (Ibtido 2:15-17, 3:1-7 ga qarang).

6:9 *Shakam shahri* — Isroilda, ya’ni shimoliy shohlikda, Ebal va Garizim tog‘lari orasida joylashgan edi. Yoshua yashagan davrda Shakam shahri Isroil xalqining o‘n ikki qabilasi uchun muhim diniy va siyosiy markaz bo‘lgan edi. Isroil xalqi Kan’on yurtini bosib olgandan keyin Shakamda yig‘ilib, Egamizga sodiq bo‘lishga va Uning Muso orqali bergan qonunlariga amal qilishga va’da bergan edi (Qonunlar 27:1-10, Yoshua 8:30-35, 24:1, 24-25 ga qarang). Xo‘sheya yashagan davrda ham Shakam shahri Egamizga sodiq

qolgan odamlar uchun muhim diniy markaz bo‘lgani ehtimoldan holi emas.

7:1 *U* — ibroniycha matnda *Efrayim*, 4:17 izohiga qarang.

7:7 *…shohlari birin–ketin nobud bo‘lyapti* — 4 Shohlar 15:8-10, 13-14, 23-25, 30 ga qarang.

7:14 *Butparastlarday badanlarini tilib, Bug‘doy va sharob talab qilishadi* — ba’zi ibroniy qo‘lyozmalaridan va qadimiy yunoncha tarjimadan. Ibroniycha matnda *Ular don va sharob uchun yig‘iladilar*. Ba’zan odamlar Baaldan baraka so‘rash va unga sodiqligini ko‘rsatish uchun badanlarini tilardilar (3 Shohlar 18:28 ga qarang).

8:1 *Dushman* — Ossuriya lashkari nazarda tutilgan.

8:5 *Samariyaliklarning oltin buzog‘i* — Isroil, ya’ni shimoliy shohlik aholisi shoh Yeribom davridan beri buzoq shaklidagi butlarga topinar edi. Bu butni Yeribomning o‘zi yasattirgan edi (3 Shohlar 12:26-33 ga qarang). Samariya Isroilning poytaxti edi.

8:9 *Efrayim* — 4:17 izohiga qarang.

8:10 *Ossuriya shohi* — ibroniycha matnda *Buyuk shoh*. Miloddan oldingi 722 yilda Ossuriya shohi Shalmanasar Isroilga, ya’ni shimoliy shohlikka hujum qilib, poytaxti Samariyani zabt etdi. So‘ng Isroil xalqining aksariyat qismini Ossuriyaga surgun qildi (4 Shohlar 17:1-6 ga qarang). Shunday qilib, shimoliy shohlik tag–tomiri bilan yo‘q bo‘lib ketdi.

8:13 *Ular Misrga qaytib ketadi* — bu o‘rinda Misrga qaytish majoziy ma’noda ishlatilgan bo‘lib, Isroil xalqining Ossuriyaga surgun qilinishi nazarda tutilgan. Xudo O‘z xalqini Misrdagi qullikdan qutqargan edi (2:15 ga qarang), endi esa Isroil xalqi Ossuriyaliklarning qo‘liga tushib, yana zulm ostida qoladi. Yana 9:3, 11:5 ga qarang.

9:1 *…fohishaday…* — Eski Ahdda zino yoki fahsh so‘zlari ko‘pincha majoziy ma’noda ishlatilgan bo‘lib, Egamizga xiyonat qilishni va boshqa xudolarga sig‘inishni bildiradi. Baalga xizmat qilish evaziga mo‘l hosil olishga ishongan odamlar ko‘rsatgan xizmati uchun haq oladigan fohishaga qiyos qilinganlar.

9:3 *…Misrga qaytib ketasan* — 8:13 izohiga qarang.

9:4 *…azadorning noniga o‘xshaydi…* — murdaga tekkan odam ushlagan non ham, o‘lik chiqqan uydagi non ham harom hisoblanardi (Sahroda 19:11-16, Qonunlar 26:14 ga qarang).

9:6 *Misr* — 8:13 izohiga qarang.

9:6 *Nuf* — Memfis nomi bilan ham ma’lum. Memfis shahri Misr shimoliy hududining markazi bo‘lib, Misr tarixida birmuncha vaqt poytaxt ham bo‘lgan edi.

9:8 *Efrayim* — 4:17 izohiga qarang.

9:9 *Givoda razillik qilgan ajdodlaring* — bu ibora Hakamlar 19:11-20:48 da bayon qilingan voqeaga, ya’ni bir ayolning zo‘rlanishi va o‘ldirilishi hamda shundan keyin bo‘lib o‘tgan ayanchli voqealarga ishora qiladi.

9:10 *…ular Piyor tog‘iga kelganda…* — Sahroda 25:1-9 ga qarang.

9:15 *Gilgal* — Isroil xalqi Gilgalda butlarga topinish uchun sajdagoh qurgan edilar (4:15, 12:11 ga qarang).

10:5 *Samariya ahli* — 8:5 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

10:5 *Bayt–Obun* — ibroniychadagi ma’nosi *qabihlik uyi*. Bu o‘rinda Xo‘sheya kinoya bilan Baytilga ishora qilgan. Baytil so‘zining ma’nosi *Xudoning uyi* demakdir (Ibtido 28:10-19 ga qarang). Ammo Isroil xalqi Baytilni butparastlik o‘chog‘iga aylantirgani uchun, muallif bu shaharni qabihlik uyi deb atamoqda (3 Shohlar 12:28-33, 4 Shohlar 10:29, Amos 7:13 ga qarang).

10:5 *Oltin buzog‘i* — 8:5 izohiga qarang.

10:6 *Buyuk shoh* — 8:10 izohiga qarang.

10:6 *Efrayim* — 4:17 izohiga qarang.

10:6 *…Umidini butga bog‘lagani uchun…* — yoki *…O‘zlari quloq solgan maslahat tufayli….*

10:8 *Obun* — ibroniychadagi ma’nosi *qabihlik* bo‘lib, Bayt–Obun nazarda tutilgan. Shu bobning 5–oyatiga va o‘sha oyatning ikkinchi izohiga qarang

10:9 *…sen Givoda gunoh qila boshlading…* — 9:9 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

10:11 *…Yanchishni u xo‘p yaxshi ko‘rardi* — donni boshoqdan ajratish jarayoni yanchish deyiladi. Qadimgi Yaqin Sharqda bu ish don boshoqlarini tayoq bilan urish, ustidan tepkilash yoki xo‘ptir yurgizish orqali bajarilgan (xo‘ptir — ostiga uchli tosh yoki temir mahkamlangan og‘ir taxta). Xo‘ptir tortayotgan hayvonlar yanchilayotgan dondan yeyishlari uchun to‘sqinlik qilinmagan (Qonunlar 25:4 ga qarang). Xo‘sheya bu obraz orqali Isroil, ya’ni shimoliy shohlik aholisining loqaydligini, ular Xudoning barakalaridan semirib ketganini, o‘zlarining hayoti Xudoga bog‘liq ekanini unutib, Unga sajda qilmay qo‘yganini tasvirlaydi (13:6 ga qarang). Yana Qonunlar 32:15-18 ga qarang.

10:11 *Endi unga omoch torttiraman* — omoch tortish g‘alla yanchishdan ko‘ra ancha og‘ir ish edi. Bu o‘rinda mazkur obraz Isroil xalqi Xudoning barakalaridan mahrum bo‘lishini va Ossuriyaga surgun qilinishini ifodalaydi.

10:11 *…Yahudo shudgor qilsin* — Yahudo, ya’ni janubiy shohlik ham Xudo tomonidan hukm qilinishiga ishora. Miloddan oldingi 586 yilda Bobil shohi Navuxadnazar Quddusni vayron qilib, aholining asosiy qismini Bobilga surgun qilgan edi (4 Shohlar 25:1-21 ga qarang). Xo‘sheya asosan Isroilga, ya’ni shimoliy shohlikka qarshi bashorat qilgan, ayni paytda Yahudo, ya’ni janubiy shohlik aholisiga ham qarshi bashorat qilgan (4:15, 5:5, 10, 14, 6:11, 8:14 ga qarang).

10:11 *Efrayim* — ibroniycha matnda *Yoqub*. Efrayimga, ya’ni shimoliy shohlikka ishora qilishning yana bir yo‘li (4:17 izohiga qarang).

10:14 *Shoh Shalman Bayt–Arbelni jangda vayron qilganday…* — bu voqea haqida boshqa hech qanday ma’lumot yo‘q. Shalman Shalmanasar ismining qisqa shakli bo‘lib, Ossuriya shohlarining bir nechtasi Shalmanasar ismi bilan tanilgan.

10:15 *Baytil* — ibroniychadagi ma’nosi *Xudoning uyi*. Isroil xalqi Baytilni butparastlik o‘chog‘iga aylantirgani uchun, muallif kesatib, Isroil xalqini Baytil deb atagan (shu bobning 5–oyatiga berilgan ikkinchi izohga qarang).

11:1 *…O‘z o‘g‘lonimni Misrdan chaqirib olgan edim* — Chiqish 4:22-23 ga qarang.

11:2 *…chaqirsam, Mendan…* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *…chaqirsalar,*

ulardan…. Ibroniycha matnda ishlatilgan uchinchi shaxs shakli Xudoning payg‘ambarlarini bildiradi (misol uchun, 4 Shohlar 17:13-14, Yeremiyo 7:25-28 ga qarang). Mazkur tarjima ravon o‘qilishi uchun birinchi shaxs tilidan bayon qilingan.

11:3 *Efrayim* — 4:17 izohiga qarang.

11:4 *bo‘yinturuq* — Isroil xalqining Misrdagi qulligiga ishora. Bu o‘rinda bo‘yinturuqni olib tashlash Xudo O‘z xalqini zulmdan xalos qilishini bildiradi. 10:11 da bo‘yinturuq taqish Xudo O‘z xalqini jazolashini, dushmanlar ularga zulm o‘tkazishini anglatadi.

11:5 *…Misrga jo‘natib jazolayman…* — 8:13 izohiga qarang.

11:7 *Payg‘ambarlarim xalqni Menga qaytishga da’vat qilsa–da…madad tilamaydi* — yoki *Ular boshqa xudoga iltijo qiladilar, ammo o‘sha xudo ularga yordam bermaydi*.

11:8 *Adma…Zavo‘yim…* — Sado‘m va G‘amo‘ra shaharlari bilan birga yakson qilingan shaharlar (Ibtido 19:24-25, Qonunlar 29:23 ga qarang).

11:10-11 *…g‘arbdan…[11]…Misrdan…Ossuriya yurtidan* — Ishayo 11:10-12 ga qarang.

11:12 *Yahudo xalqi Menga qarshi bosh ko‘tardi…ular itoat qilmayapti* — yoki *Yahudo xalqi Menga ergashmoqda…ular sodiq qolmoqda*. Bu oyatda ishlatilgan ibroniycha fe’l Yahudo haqidagi yaxshi yoki yomon xabarni bildirishi mumkin. Bu o‘rinda yomon xabar ekanligining ehtimoli ko‘proq. Xo‘sheya asosan Isroilga, ya’ni shimoliy shohlikka qarshi bashorat qilgan, ba’zi o‘rinlarda esa Yahudo, ya’ni janubiy shohlik aholisiga ham qarshi bashorat qilgan (4:15, 5:5, 10, 14, 6:11, 8:14, 10:11, 12:2 ga qarang).

12:1 *Efrayim* — 4:17 izohiga qarang.

12:1 *garmsel* — issiq shamol.

12:2 *Yoqub nasli* — Xudo Yoqubning ismini Isroil deb o‘zgartirgan (Ibtido 32:27-28 ga qarang), shuning uchun ko‘pincha Yoqub nasli deganda Isroil, ya’ni shimoliy shohlik aholisi nazarda tutiladi. Biroq bu o‘rinda mazkur ism ham Isroil, ham Yahudo xalqlariga nisbatan ishlatilgan. Yoqub bu ikkala xalqning bobokaloni bo‘lgan.

12:3 *…Yoqub akasi bilan talashgan…* — yoki *…Yoqub o‘z akasining tovonini ushlab olgan…*. Ibtido 25:26 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang. Yana Ibtido 25:29-34, 27:1-45 ga qarang.

12:3 *…Xudo bilan olishgan* — Ibtido 32:22-30 ga qarang.

12:4 *farishta* — Egamizning farishtasi nazarda tutilgan, ba’zan bu ibora Xudoning O‘zi zohir bo‘lganiga ishora qilinadi. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi EGAMIZNING FARISHTASI iborasiga qarang.

12:4 *Baytilda…* — Ibtido 28:10-22, 35:1-15 ga qarang.

12:4 *…Xudo bilan suhbat qurgandi* — qadimiy yunoncha va suryoniycha tarjimalardan. Ibroniycha matnda *…biz Xudo bilan suhbat qurgandik*. Yoqub Isroil xalqining bobokaloni edi. Shuning uchun uning Xudo bilan suhbat qurgani Isroil xalqiga xuddi ularning o‘zi Xudo bilan suhbat qurganday bo‘lib tuyulsa kerak.

12:9 *O‘sha davrdagiday seni yana chodirlarda yashattiraman* — Egamiz O‘z xalqini Misrdagi qullikdan qutqargandan keyin, ular qirq yil sahroda ko‘chmanchilarday yashagan edilar. O‘sha davrda ularning har qanday muhtojligini faqatgina Xudo qondirardi. Isroil xalqi Kan’on yurtiga kirishidan oldin Muso ularni, takabburlashib

ketmanglar, Xudoni unutmanglar, deb ogohlantirgan edi (13:5-6 ga va Qonunlar 8:1-19 ga qarang). Xullas, Xudoning xalqi yana faqatgina Xudoga tayanib yashashni o‘rganishi kerak edi.

12:11 *Gilad* — 6:8 ga qarang.

12:11 *Gilgal* — Isroil xalqi Gilgalda butlarga topinish uchun sajdagoh qurgan edi (4:15, 9:15 ga qarang). Gilad va Gilgal nomlari o‘zaro ohangdosh. Bu ikki nom butun Isroilni, ya’ni shimoliy shohlikni bildiradi. Gilad shohlikning Iordan daryosidan sharqiy qismini, Gilgal g‘arbiy qismini bildirgan.

12:12 *Oram — Paddon–Oram*ning qisqa shakli. Paddon–Oram Furot daryosi bo‘yida, hozirgi Suriya mamlakatining shimolida va hozirgi Turkiyaning janubi–sharqida joylashgan hudud edi. Yoqubning bobosi bo‘lgan Ibrohimning ba’zi qarindoshlari shu hududda yashagan.

12:12 *Yoqub Oram yurtiga qochib bordi…* — Ibtido 28:1-5 ga qarang.

12:12 *u* — ibroniycha matnda *Isroil*, Yoqubning yana bir ismi.

12:12 *…Qalin evaziga qo‘ylar boqdi* — Ibtido 29:1-20 ga qarang.

12:13 *payg‘ambar* — Muso nazarda tutilgan.

12:13 *Yoqub nasli* — ibroniycha matnda *Isroil*, Yoqub naslining yana bir nomi.

13:1 *Efrayim* — 4:17 izohiga qarang.

13:2 *…Kumushdan…sanamlar ishlashar…* — ehtimol, kumushdan yasalgan bu sanamlar xonaki sanamlar bo‘lib, Baytildagi oltin buzoq shaklida bo‘lgan (8:5 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang).

13:2 *Mening xalqimga shunday deb aytishyapti…* — 3 Shohlar 12:26-33 ga qarang.

13:2 *Oltin buzoqlarni o‘pinglar!* — mazkur butlarga itoatkorlik va sadoqat belgisi. 3 Shohlar 19:18 ga qarang.

13:5 *…sahroda…* — Xudo O‘z xalqini Misrdagi qullikdan qutqargandan keyin, ular qirq yil sahroda ko‘chmanchilarday yashaganlar.

13:6 *Serhosil o‘lkada qorningni to‘yg‘izdim…* — Qonunlar 8:7-11 ga qarang.

13:14 *Men bu xalqni…qutqararmikanman?! Ularni…xalos qilarmikanman?!* — bu iborani darak gap shaklida *Men bu xalqni…qutqaraman. Ularni…xalos qilaman* deb tarjima qilsa ham bo‘ladi. Ammo darak gap bu o‘rinda to‘g‘ri kelmaydi, chunki qolgan oyatlarda muallif Isroil xalqini Xudoning hukmi haqida ogohlantiryapti.

13:14 *o‘liklar diyori* — ibroniycha matnda *Sheo‘l*. Qadimda Isroil xalqi *Sheo‘l*ni yer ostidagi tubsiz chuqurlik, marhumlar boradigan qorong‘i joy deb tushunardi.

13:14 *Ey o‘lim, qirg‘in olib kelgin! Ey o‘liklar diyori, halokatli kuchingni ko‘rsatgin!* — ibroniycha matnda *Ey o‘lim, sen keltiradigan qirg‘in qani?! Ey o‘liklar diyori, halokatli kuching qani?!* Bu o‘rindagi savollar majoziy ma’noda ishlatilgan bo‘lib, Xudo albatta Isroil xalqini jazolashiga ishora qiladi.

13:15 *garmsel* — hosilga katta ziyon keltiradigan issiq shamol. Bu o‘rinda majoziy ma’noda ishlatilib, Xudoning hukmini bildiradi.

14:1 *Samariya aholisi* — 8:5 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

14:9 *Efrayim* — 4:17 izohiga qarang.

14:9 *…Men butlaringga aslo o‘xshamayman!* — yoki *…Endi butlaringni tashla!*

14:9 *Men doim yashil sarv daraxti kabidirman…* — Eski Ahdda Xudo faqat shu joyda daraxtga qiyoslangan. Kan’ondagi xalqlarning udumiga ko‘ra, sajdagohlar serbarg daraxtlar ostida yoki tepaliklarda joylashgan edi. O‘sha joylarda odamlar Baal va shunga o‘xshash mahalliy xudolarga qurbonlik keltirib, ulardan yomg‘ir yog‘dirishni, o‘zlarining mollariyu dalalariga baraka berishni so‘rardilar. Bu o‘rinda Xudo O‘z xalqiga faqatgina Uning O‘zi doim baraka va unumdorlik manbai ekanligini eslatadi.

YO‘EL

PAYG‘AMBARNING KITOBI

Kirish

Yo‘el payg‘ambar Yahudo va Quddus aholisiga bashorat qilib, ularni tavbaga chaqiradi. Uning bashoratlari aniq va lo‘nda bo‘ladi. Yo‘el payg‘ambar qachon faoliyat ko‘rsatgani aniq emas. Ba’zi olimlarning taxmini bo‘yicha, Yo‘el payg‘ambar Bobil Quddusni bosib olishidan avval, ya’ni miloddan oldingi 586 yilgacha faoliyat ko‘rsatgan. Yana ba’zi bir olimlarning tadqiqoti bo‘yicha, payg‘ambar Isroil xalqi Bobildagi surgundan qaytib kelgandan va Ma’bad qayta qurilgandan so‘ng, ya’ni miloddan oldingi 515 yildan keyin bashorat qilgan.

Mazkur kitobda Yo‘el payg‘ambar “Egamizning kuni” haqida xabar beradi. O‘sha davrda Yahudo xalqi “Egamizning kuni”ni intizorlik bilan kutardi. Ular o‘sha kun kelganda Xudo barcha dushmanlarni yo‘q qiladi, yahudiylar uchun ro‘shnolik davri boshlanadi, deb o‘ylashardi. Biroq payg‘ambar bunga e’tiroz bildiradi, aslida “Egamizning kuni” kelganda, Xudo, birinchi navbatda, O‘z xalqini gunohlari uchun jazolashini aytadi. Shu bois, payg‘ambar xalqni tavbaga chaqiradi. U Yahudo yurtiga bostirib keladigan gala–gala chigirtkalar va u yerda hukm suradigan dahshatli qurg‘oqchilik haqida odamlarni ogohlantiradi. U “Egamizning kuni”ni zimziyo zulmat kuni, bulut qoplagan tim qorong‘i kun, deb tasvirlaydi.

Yo‘el payg‘ambar xalqni Xudoga qaytishga da’vat qiladi. Xudoning inoyati va rahmdilligi haqida so‘z ochadi. Xalq jazo olib bo‘lgandan keyin, Xudo ularga shafqat qilishini, ustilariga O‘z Ruhidan mo‘l qilib yog‘dirishini, dushmanlarni esa ayovsiz jazolashini payg‘ambar bashorat qilib aytadi.

1–BOB

1 Patuval o‘g‘li Yo‘elga Egamiz shu so‘zlarni ayon qildi:

Xalq nobud bo‘lgan donga kuyinadi

2 Ey oqsoqollar, buni eshiting!
Yahudo odamlari, siz quloq tuting!
Yuz berganmi hech bunday falokat
Sizning yoki ota–bobolaringiz zamonida?!
3 Bu haqda farzandlaringizga ayting siz,
Bolalariga so‘zlab bersin farzandlaringiz,
Keyingi avlodga yetkazsin nabiralaringiz.

4 Qirg‘in keltiruvchi chigirtkadan* qolganini
Yeb bitirdi kemiruvchi chigirtka galasi.
Kemiruvchi chigirtka galasidan qolganini
Yeb bitirdi sakraydigan chigirtka galasi.
Sakraydigan chigirtkadan qolganini

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

Yeb bitirdi qirtishlovchi chigirtka galasi.

5 Uyg‘oninglar, ey mayxo‘rlar, yig‘langlar!
Ey sharobxo‘rlar, faryod qilinglar!
Sharob og‘zingizdan tortib olindi, axir.
6 Bostirib keldi yurtimizga lashkarlar*,
Son–sanoqsiz kuchli bahodirlar.
Arslon tishiga o‘xshar tishlari,
Go‘yo urg‘ochi arslonniki qoziq tishlari.
7 Uzumzorlarimizni ular payhon qilishdi,
Anjir daraxtlarimizni sindirishdi,
Shoxlariyu novdalar po‘stlog‘ini shilib,
Hammasini ship–shiydam qilishdi.

8 Qanorga o‘raning, ey odamlar, faryod qiling,
Kuyovidan judo bo‘lgan kelinchak kabi.
9 Egamiz uyidan uzilgan sharob, don nazri,
Aza tutayotir Egamizning xizmatkor ruhoniylari.
10 Xarob bo‘ldi ekinzorlar,
Motam tutayotir dalalar.
Bug‘doy boshoqlari qovjirab qoldi,
Uzum sharbati ham oqmay to‘xtadi,
Zaytun moyi ham tamom quridi.

11 Qayg‘urmaysizlarmi, ey dehqonlar?!
Faryod solmaysizlarmi, ey bog‘bonlar?!
Nobud bo‘lib ketdi–ku arpa, bug‘doyingiz,
Xarob bo‘lib ketdi–ku jamiki hosilingiz.
12 Uzum toki so‘lidi, anjir daraxti quridi.
Xazon bo‘ldi anor, xurmo, olma — hamma daraxtlar.
Inson sevinchi tamom qurib bitdi!

13 Qanorga o‘ranib* motam tuting, ey ruhoniylar!
Faryod qiling qurbongohda xizmat qiladiganlar!
Tunni ham qanorda o‘tkazing sizlar,
Ey Xudoyimning xizmatida yurganlar!
Xudoyingiz uyida nazr qilgani
Don va sharob qolmadi, axir.
14 Ro‘za kunlarini belgilanglar,
O‘sha kunlarga yig‘in e’lon qilinglar.
Yig‘ib kelinglar oqsoqollarni,
Yurtning jamiki aholisini.
Egangiz Xudoning uyiga yig‘inglar,
Egamizga iltijo qilib yolvoringlar!

15 Sho‘rimiz qursin, evoh!

Egamizning kuniga* oz qoldi,
Qodir Xudo kulfat keltiradi!

16 Rizq–ro‘zimiz ko‘z o‘ngimizda qirqildi–ku!
Xudoyimiz uyida shod–xurramlik tugadi–ku!
17 Kesaklar tagida urug‘lar nobud bo‘ldi,
Donli ekinlar unmasdan qoldi.
Omborxonalar bo‘m–bo‘sh yotibdi,
Don omborlari xarob bo‘libdi.
18 Ingramoqda hayvonlar naqadar!
Axir, qurigan–ku o‘tloqlar.
Daydib yurar mol podalari,
Gangigan hatto qo‘y suruvlari.

19 Ey Egam, Senga men faryod qilarman!
Axir, olov yamladi dashtdagi yaylovlarni,
Yong‘in yo‘q qildi daladagi daraxtlarni.
20 Hatto yovvoyi hayvonlar ham Senga nola qilmoqda!
Axir, irmoqlar ham qurib ketdi,
Dashtdagi yaylovlarni olov yamladi.

2–BOB

Egamizning kuni yaqinlashib qoldi

1 Quddusda* burg‘u chalinglar!
Egamizning muqaddas tog‘ida* bong uringlar!
Titrasin Yahudoning jamiki ahli,
Axir, kelyapti Egamizning kuni*.
U kunga oz vaqt qoldi.
2 Zimziyo zulmat kuni bo‘lar u kun,
Bulut qoplagan tim qorong‘i bo‘lar u kun!
Katta kuchli lashkar yurtni bosar,
Yorishgan tongday tog‘lar uzra yoyilar.
Bunaqasi azaldan hech sodir bo‘lgan emas,
Bundan keyin ham hech qachon sodir bo‘lmas.

3 Alanga yutib borar ular oldidan,
Olov guvullab yonar ular ortidan,
Biron jonzot qochib qutulmas ulardan.
Ilgari edi zamin Adan bog‘iday,
Endi bo‘lib qoldi qaqroq sahroday.

4 Ularning ko‘rinishi otlarga o‘xshar,
Jang otlari kabi hujum qilishar.
5 Tog‘ cho‘qqilariga sakrab chiqishar,
Jang aravasiday gumburlab chopar,

Yonayotgan xas–cho‘p kabi chirsillar,
Jangga tayyor bo‘lib saf tortgan
Kuchli lashkarga o‘xshar ular.

6 Ularning oldida xalqlar dahshatga tushar,
Hammaning yuzi bo‘zday oqarib ketar.
7 Jangchilarday hujum qilar bu lashkar,
Sipohlarday devordan oshib tushar.
Safdan chetga chiqmay olg‘a bosishar.
8 Bir–birlarin turtmaslar,
Hammasi o‘z yo‘lida ketar.
G‘ovlarni ham yorib o‘tishar,
Hech narsa ularni to‘xtata olmas.
9 Bostirib borishar ular shaharga,
Yopirilishar shahar devorlariga.
Uylarga tirmashib chiqishar,
O‘g‘riday derazalardan ichkariga kirishar.

10 Ularning oldida zamin titrar,
Osmonu falak qaltirab turar.
Quyosh ham, oy ham qorayar,
Yulduzlar nuri so‘nar.
11 Egamiz lashkarning boshida turar,
Lashkariga O‘z sadosin berar.
Naqadar behisob Uning qo‘shini,
Uning amriga bo‘ysunadiganlar qudratli.
Egamizning kuni chindan dahshatli!
Bu vahimali kunga bardosh bergay kim?!

Tavba–tazarruga da’vat

12 Egamizning kalomi shudir:
“Hozir ham kech emas,
Ro‘za tutib, yig‘lab, qayg‘urib,
Butun qalbingiz bilan Menga qaytinglar.
13 Kiyimingizni emas, bag‘ringizni yirtinglar*.”

Egangiz Xudoga qaytinglar, U inoyatli,
Rahmdil, jahli tez chiqmaydi, sodiq sevgisi mo‘ldir,
G‘azabidan tushib kechiradigan Xudodir.
14 Kim bilsin, U shashtidan qaytar,
Balki xirmoningizga baraka berar.
Shunda Egangiz Xudoga sizlar
Don bilan sharob nazrin taqdim qilasizlar.

15 Burg‘u chaling Quddusda!
Ro‘za kunlarin belgilanglar,

O‘sha kunlarga yig‘in e’lon qilinglar.
16 Yig‘ing jamiki xalqni,
Pok qiling jamoani.
Chaqirtiring qariyalarni,
Olib keling bolalaru emizikli go‘daklarni.
Hatto yangi kelin–kuyovlar ham
Chimildiqdan chiqib kelishsin.

17 Ma’badning ayvoni bilan qurbongoh orasida*
Yig‘lashsin Egamizning xizmatkor ruhoniylari,
Yolvorishsin shunday deya Xudoga:
“Ey Egamiz, shafqat qilgin xalqingga,
Mulking bo‘lgan Isroil ellar aro kulgi bo‘lmasin.
«Ularning Xudosi qani?!» deya xalqlar bizni mazax qilmasin!”

Egamizning inoyati

18 Egamiz O‘z yurtiga jon kuydirdi shul zamon,
O‘z xalqiga rahm qildi U o‘shal on.
19 Javob berdi* U xalqiga shunday debon:
“To‘q bo‘lasiz, sizlarga beraman sharob, moy va don.
Xalqlar orasida mazax bo‘lishingizga endi yo‘l qo‘ymayman.
20 Daf qilaman shimoldan kelgan lashkarlarni,
Haydab solaman qaqroq, huvullagan sahroga ularni.
O‘lik dengizga uloqtiraman ilg‘or qismlarini,
O‘rta yer dengiziga suraman orqa qismlarini.
Jasadlaridan qo‘lansa hid anqiydi.”
Bajo qildi Egamiz buyuk ishlarini!

21 Ey zamin, qo‘rqma! Xursand bo‘l, shodlan.
Bajo qildi Egamiz buyuk ishlarini!
22 Qo‘rqmanglar endi, ey yovvoyi hayvonlar,
Chunki yam–yashildir dashtdagi yaylovlar,
Meva berayotir endi daraxtlar,
Anjir va uzumning hosili mo‘ldir.

23 Ey Quddus xalqi, xursand bo‘linglar,
Egangiz Xudoning ishlaridan seviningiz.
Sizlarga U yon bosib, yomg‘irni mo‘l yog‘dirdi.
Oldingiday, kuz, bahorda yomg‘irni quydirdi.
24 Endi xirmonlar donga to‘lib ketadi,
Xumlar sharobu moy bilan to‘lib–toshadi.

25 Egamiz shunday deydi:
“Zarar ko‘rdingiz qirg‘in keltiruvchi,
Yemiruvchi chigirtkalar* dastidan,
Ekinzorlaringizni kemirib tashlagan

Sakraydigan chigirtka galasi dastidan,
Ko‘rgan zararingizni Men qoplayman.
Bu kuchli lashkarni sizga qarshi Men yuborganman.

26 Endi sizlar xohlaganingizcha yeysiz,
Sizlar uchun ajoyibotlar ko‘rsatgan
Men, Egangiz Xudoga hamdu sano aytasiz.
Ey xalqim, hech qachon sharmanda bo‘lmaysan endi!
27 Ey Isroil, Men orangda ekanimni bilib olasan shunda,
Men Egangiz Xudoman, yo‘qdir Mendan boshqasi.
Ey xalqim, hech qachon sharmanda bo‘lmaysan endi!

Xudo O‘z Ruhini yog‘dirishni va’da qiladi

28 So‘ngra O‘z Ruhimni yog‘diraman har bir inson ustiga,
Vahiylar keladi yigitlaringizga.
Bashoratlar qilar sizning o‘g‘il–qizlaringiz.
Karomatli tushlar ko‘rar qariyalaringiz.
29 O‘z Ruhimni yog‘diraman o‘sha kunlarda,
Hattoki qulu cho‘rilaringiz ustiga.

30-31 Mening buyuk va dahshatli kunim kelishidan oldin, Men yeru osmonda alomatlarni ko‘rsataman. Yer yuzida qonni, olovni va tutun ustunlarini paydo qilaman. Quyosh qorayadi, oy qon tusiga kiradi.”

32 Shunda Xudo da’vat etgan odamlar omon qoladi. Ha, Egamizga iltijo qilgan har bir inson qutqariladi. Egamiz aytganiday, Sion tog‘iga va Quddusga qochib borganlar najot topishadi.

3–BOB

Xudo xalqlarni hukm qiladi

1 Egamiz shunday deydi: “O‘sha kunlarda Men Yahudo va Quddusning oldingi mavqeini tiklayman. 2 So‘ng barcha xalqlarni yig‘ib, Hukm vodiysiga* olib tushaman. U yerda xalqim Isroil haqi ular bilan da’volashaman, chunki ular Mening xalqimni turli ellarga tarqatib yubordilar. Yurtimni esa o‘zaro bo‘lishib oldilar. 3 Ular xalqim uchun qur’a tashlab, o‘g‘il–qizlarimni sotib yubordilar. Tushgan pulga fohishabozligu aysh–ishrat qildilar.

4 Ey Tir, Sidon* va butun Filist xalqi, Menda nima qasdingiz bor?! Sizlar hali Mendan o‘ch olmoqchimisiz?! Bordi–yu, niyatingiz shu bo‘lsa, Men o‘sha zahotiyoq qilmishingizga yarasha jazoingizni beraman. 5 Sizlar oltinu kumushlarimni tortib oldingiz, qimmatbaho xazinalarimni sajdagohlaringizga olib ketdingiz. 6 Yahudo va Quddus xalqini yunonlarga* sotib, o‘z vatanidan yiroq qildingiz. 7 Endi Men Yahudo va Quddus xalqini sizlar sotgan yurtlardan olib chiqaman. Qilmishingizga yarasha jazoingizni beraman. 8 O‘g‘il–qizlaringizni Yahudo xalqiga sotaman, ular esa farzandlaringizni olisdagi bir xalqqa — Savoliklarga* sotishadi.” Zotan, bu so‘zlarni Egamiz aytdi.

9 Xalqlar orasida shunday deb e’lon qiling:
“Jangga tayyorlanib, jangchilarni safarbar qiling!
Sipohlaringiz hujum qilsin!
10 Omochlaringizdan yasang qilichlar,
O‘roqlaringizdan qiling nayzalar.
Zaiflar ham qo‘liga qurol tutsin.
11 Ey tevarakdagi xalqlar, shoshiling*,
Qani, hammangiz vodiyda to‘planing.”

O‘z sipohlaringni, ey Egam, chaqir!

12 Egamiz shunday deydi:
“Barcha xalqlar bo‘lsin safarbar,
Hukm vodiysiga* kelishsin ular.
Men u yerda o‘tirarman,
Hamma xalqlar ustidan hukm chiqararman.
13 Qani, kelinglar,
Yetilgan bug‘doyni o‘rganday ularni o‘ringlar,
Pishgan uzumni ezganday*, bosib yo‘q qilinglar,
Xumlar to‘lgan,
Ularning qabihliklari bilan to‘lib–toshgan.”

14 Ming–minglab olomon to‘plangan
Hukm vodiysida!
Zotan, yaqinlashgandir
Egamizning kuni* Hukm vodiysiga.
15 Quyosh ham, oy ham qoraygan,
Yulduzlar nuri so‘ngan.

16 Egam Quddusdan turib hayqirar,
Siondan gulduros ovozi yangrar,
Yeru osmon larzaga kelar.
Ammo Egam O‘z xalqini panohiga olar,
U Isroil xalqining qo‘rg‘oni bo‘lar.

Xudo O‘z xalqini barakalaydi

17 Egamiz shunday deydi:
“Ey xalqim, shunda sizlar
Egangiz Xudo Men ekanligimni bilasizlar.
Men muqaddas tog‘im Sionda* qurganman maskan.
Tabarruk bir shahar bo‘ladi Quddus,
Bosqinchilar endi aslo unga qilmas tajovuz.

18 O‘sha kuni sut oqar qirlardan,
Uzum sharbati kelar tog‘lardan,
Yahudodagi o‘zanlar suvga to‘lar,
Mening uyimdan buloq otilib chiqar,

Akas daraxtlari o‘sadigan qaqroq soylikni* sug‘orar.

19 Misr huvullab, Edom* bo‘m–bo‘sh sahroga aylanar.
Oh, Yahudo xalqiga zulm o‘tkazdi ular,
Begunoh odamlarning qonin to‘kdilar.
20-21 Men albatta jazolayman ularni!
Aslo oqlamayman jinoyatchilarni!*
Yahudo esa abadiy yashar,
Quddus avlodlar osha barqaror bo‘lar.
Men, Egangiz, Sionda qurganman maskan.”

IZOHLAR

1:4 *chigirtka* — ba’zan to‘da–to‘da bo‘lib kelib, dalalardagi hosilga katta zarar yetkazadigan hasharot. Bu oyatning ibroniycha matnida chigirtkaga nisbatan to‘rt xil so‘z ishlatilgan. Ushbu ibroniycha so‘zlar to‘rt xil chigirtkani yoki chigirtkaning rivojlanish jarayonidagi to‘rtta bosqichni bildirishi mumkin. Shuningdek, chigirtkaga nisbatan ishlatilgan to‘rtta sinonim so‘z bo‘lishi ham mumkin.

1:6 *lashkarlar* — majoziy obraz bo‘lib, chigirtka galasiga ishora qiladi.

1:13 *Qanorga o‘ranib…* — qanor dag‘al qoramtir mato bo‘lib, echki yoki tuya junidan to‘qilgan. Qanorga o‘ranib olish umidsizlikni va qayg‘uli holatni ifodalaydi. Ko‘pincha bu harakat Xudodan kechirim so‘rab ibodat qilish va Undan madad tilash bilan birgalikda amalga oshirilgan.

1:15 *Egamizning kuni* — Eski Ahddagi payg‘ambarlar bitiklarida bir necha marta uchraydigan ibora. Ko‘pincha bu ibora Xudoning jazosi keladigan alohida bir vaqtga ishora qiladi. Mazkur oyatda chigirtkalar falokatiga nisbatan ishlatilgan. Bu ibora yana qiyomat kunidagi Xudoning hukmiga nisbatan ham ishlatiladi. O‘sha kuni Xudo O‘z dushmanlari ustidan g‘alaba qozonadi va ularni jazolaydi, O‘ziga sodiq qolganlarga esa orom bag‘ishlaydi, ularga tinchlik va qut–barakalar ato qiladi.

2:1 *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion* (shu bobning 15, 23–oyatlarida ham bor). Eski Ahddagi she’riy parchalarda va payg‘ambarlar bitiklarida Sion so‘zi ko‘pincha Quddus shahriga yoki Xudoning xalqiga nisbatan ishlatilgan.

2:1 *Egamizning muqaddas tog‘i* — Quddusdagi Sion tog‘iga ishora. Quddusdagi Ma’bad qurilgan tepalik Sion tog‘i deb atalgan. Eski Ahddagi she’riy parchalarda va payg‘ambarlar bitiklarida Sion so‘zi ko‘pincha Quddus shahriga nisbatan ishlatilgan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi SION so‘ziga qarang.

2:1 *Egamizning kuni* — Yo‘el chigirtkalar keltirgan falokatga ishora qilib (1:2-12 ga qarang), kelajakda undan–da dahshatliroq hukm yuz berishi haqida ogohlantiradi (1:15 izohiga qarang).

2:13 *Kiyimingizni emas, bag‘ringizni yirtinglar* — kiyimlarni yirtish umidsizlikni va qayg‘uli holatni ifodalaydi. Ko‘pincha bu harakat Xudodan kechirim so‘rab ibodat qilish va Undan madad tilash bilan birgalikda amalga oshirilgan. Yo‘el, bag‘ringizni yirtinglar, degan iborani majoziy ma’noda qo‘llab, odamlarni chin yurakdan tavba qilishga chaqiradi.

2:17 *Ma’badning ayvoni bilan qurbongoh orasida…* — ruhoniylar odamlar uchun ibodat qiladigan joy.

2:19 *Javob berdi…* — odamlar Yo‘el payg‘ambarning so‘zlariga qanday munosabat bildirgani ochiq yozilmagan bo‘lsa–da, aniq ko‘rinib turibdiki, ular tavba qilib, Egamizga qaytganlar.

2:25 *chigirtkalar* — bu oyatning ibroniycha matnida chigirtkaga nisbatan to‘rt xil so‘z ishlatilgan. 1:4 izohiga qarang.

3:2 *Hukm vodiysi* — ibroniycha matnda *Yohushafat vodiysi*, ma’nosi *Egamiz hukm*

qiladigan vodiy. Quddusga yaqin bo‘lgan bir joyning ramziy nomi bo‘lishi mumkin. Ibroniycha matnda shu bobning 14–oyatida *Hukm vodiysi* degan ibora ishlatilgan. Bu vodiy faqat mazkur kitobda tilga olingan. Hukm vodiysi Xudo oxiratda O‘z xalqining dushmanlarini hukm qiladigan joy, deb tasvirlangan.

3:4 *Tir, Sidon* — Finikiyada muhim ahamiyatga ega bo‘lgan shaharlar. Bu shaharlar Isroildan shimolda, O‘rta yer dengizi bo‘yida joylashgan edi. Bugungi kunda bu yer Livan mamlakatining janubiy qismini tashkil qiladi. Filistlar bu shaharlar bilan ittifoq tuzgan edilar.

3:6 *yunonlar* — ibroniycha matnda *Yovon nasli*, o‘sha vaqtda yunonlar shu nom bilan ham atalardi.

3:8 *Savo* — Arabiston yarim orolining janubida yoki Afrikada, Qizil dengizning g‘arbiy bo‘yida joylashgan.

3:11 *…shoshiling…* — bu kesatiqli e’londa Xudoning xalqiga dushman bo‘lganlar o‘z hukmlariga tez yetib kelishga da’vat qilinganlar.

3:12 *Hukm vodiysi* — ibroniycha matnda *Yohushafat vodiysi*, ma’nosi *Egamiz hukm qiladigan vodiy*. Shu bobning 2–oyati izohiga qarang.

3:13 *…Yetilgan bug‘doyni o‘rganday…Pishgan uzumni ezganday…* — xalqlarning haddan tashqari ko‘payib ketgan qabihligi g‘arq pishgan hosilga o‘xshatilgan. Yetilgan bug‘doyni o‘rish vaqti kelganday, qabih xalqlarning Xudo tomonidan hukm qilinish vaqti ham yetib kelgan edi. Uzum ezish ham Muqaddas Kitobda ko‘pincha Xudoning odamlar ustidan chiqaradigan hukmiga nisbatan ko‘chma ma’noda ishlatilgan. Qadimgi paytlarda odamlar uzumni qoyatoshga o‘yilgan chuqurga yoki tuproqdan qazilgan, tubiga va atrofiga zich qilib tosh terilgan chuqurga solib, sharbatini siqib olish uchun oyoqlari bilan ezardilar. Sharbat o‘sha chuqurdan yana boshqa bir chuqurga oqib tushardi.

3:14 *Egamizning kuni* — 1:15 izohiga qarang.

3:17 *muqaddas tog‘im Sion* — 2:1 ning ikkinchi izohiga qarang.

3:18 *Akas daraxtlari o‘sadigan qaqroq soylik* — ibroniycha matnda *Shitim soyligi*, ma’nosi *akas daraxti soyligi*. Akas daraxtlari quruq yerlarda o‘sadi.

3:19 *Edom* — bu yurt O‘lik dengizning janubida joylashgan edi.

3:20-21 *Men albatta jazolayman ularni! Aslo oqlamayman jinoyatchilarni!* — yoki *Men oldin ularning kechirmagan ayblarini endi kechiraman*. Bu holda mazkur jumla Yahudo va Quddus aholisiga nisbatan aytilgan, deb tushunish kerak.

AMOS

PAYG‘AMBARNING KITOBI

Kirish

Amos payg‘ambar Yahudo* yurtidan bo‘lib, u yerda chorvachilik bilan shug‘ullanar edi. U payg‘ambar bo‘lish uchun hech qanday tahsil olmagan (7:14-15 ga qarang). Shunga qaramay, Xudo uni Isroil yurtiga yuboradi va u yerdagi xalqqa bashorat qilishni buyuradi. Amos Yahudo yurtidagi o‘zi yashayotgan Taxuva qishlog‘ini tark etib, Isroil yurtidagi Baytil shahriga boradi. O‘sha davrlarda Baytil Isroildagi butparastlikning eng ashaddiy o‘chog‘i bo‘lgan.

Ushbu kitobning boshlanishida Amos payg‘ambar Isroil atrofidagi xalqlar to‘g‘risida bashorat qiladi. So‘ng Isroil xalqining, ayniqsa, boy–badavlat odamlarning achchiq qismatini e’lon qiladi. Negaki, ular kambag‘al yurtdoshlarini shilib, qul qilib olishardi. O‘sha davrda Isroil xalqining aksariyat qismi Xudoning yo‘lidan og‘ib, butlarga sig‘ina boshlagan edi. Shunga qaramay, ular Xudodan najot kutishardi. Amos esa xalqni ogohlantirib, Xudo ularni jazolashini aytadi.

Kitob umidbaxsh so‘zlar bilan yakunlanadi. Xudo O‘z xalqini jazolab bo‘lgandan so‘ng, ularni asirlikdan o‘z yurtiga qaytarib olib keladi, Isroil shohligini qayta tiklaydi.

1–BOB

1 Ushbu kitobda Taxuvada* chorvador bo‘lgan Amosning so‘zlari bayon etilgan.
Isroil* to‘g‘risidagi bu so‘zlar Amosga zilziladan* ikki yil avval vahiy orqali ayon bo‘lgan
edi. O‘sha davrda Yahudo yurtida shoh Uzziyo, Isroil yurtida esa Yoho‘sh* o‘g‘li shoh
Yorubom* hukmronlik qilayotgan edilar.
2 Amos shunday dedi:

“Egamiz Quddusdan turib hayqiradi,
Siondan* gulduros ovozi yangraydi!
Cho‘ponlarning yaylovlari qurib qoladi*,
Karmil* cho‘qqisidagi o‘tlar xazon bo‘ladi.”

Isroil atrofidagi xalqlar hukm qilinadi

Oram

3 Egamiz shunday demoqda:
“Damashq* aholisi gunoh ustiga gunoh qildi!
Men ularni jazosiz qoldirmayman,
Axir, ular Gilad aholisini temir tishli xo‘ptir bilan yanchdi*.
4 Shunday ekan, Men shoh Xazayilning saroyiga olov yog‘diraman,
Olov Banhadadning* qal’alarini yondirib yuboradi.
5 Men Damashq darvozalarining tambalarini sindiraman.
«Qabihlik* vodiysi»ning hukmdorini yo‘q qilaman,
Bayt–Edenda* saltanat hassasini* tutgan zotni halok qilaman.

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

Oram xalqi asirlikka tushadi, Xir yurtiga* olib ketiladi.”
Egamizning kalomi shudir.

Filistiya

6 Egamiz shunday demoqda:
“G‘azo* aholisi gunoh ustiga gunoh qildi!
Men ularni jazosiz qoldirmayman,
Axir, ular xalqimning qishloqlaridagi aholisini
Asirlikka olib, Edom xalqiga qul qilib sotdilar.
7 Shunday ekan, Men G‘azo devoriga olov yog‘diraman,
Olov G‘azo qal’alarini kuydirib tashlaydi.
8 Men Ashdod shahrining hukmdorini* yo‘q qilaman,
Ashqalonda saltanat hassasini tutgan zotni halok qilaman.
Exron shahriga qarshi qo‘l ko‘taraman,
Omon qolgan Filistlarni qirib tashlayman!”
Egamiz Rabbiyning kalomi shudir.

Tir

9 Egamiz shunday demoqda:
“Tir* aholisi gunoh ustiga gunoh qildi!
Men ularni jazosiz qoldirmayman.
Axir, ular birodarlik ittifoqini unutib,
Xalqimning qishloqlaridagi aholisini
Edomliklarga qul qilib sotdilar.
10 Shunday ekan, Men Tir devoriga olov yog‘diraman,
Olov Tir qal’alarini kuydirib tashlaydi.”

Edom

11 Egamiz shunday demoqda:
“Edom* aholisi gunoh ustiga gunoh qildi!
Men ularni jazosiz qoldirmayman.
Axir, ular qardoshi Isroil xalqiga* rahm qilmadilar.
Ularni qilich bilan ta’qib qilib*,
Qahrini cheksiz sochdilar,
G‘azabidan hech tushmadilar.
12 Shunday ekan, Men Temon shahriga olov yog‘diraman,
Bozrax* qal’alarini olov kuydirib tashlaydi.”

Ommon

13 Egamiz shunday demoqda:
“Ommon* xalqi gunoh ustiga gunoh qildi,
Men ularni jazosiz qoldirmayman.
Axir, ular hududini kengaytirish uchun Giladga hujum qildilar,
O‘shanda homilador ayollarning qorinlarini yordilar.
14 Shunday ekan, Men Rabba shahrining* devoriga o‘t qo‘yaman,
Olov Rabba qal’alarini kuydirib tashlaydi.
O‘sha kuni jangdagi hayqiriqlar falakni tutadi,
Jang bo‘ron kabi avj oladi.

15 Ommon shohi surgun qilinadi,
U bilan birga mulozimlar ham olib ketiladi.”
Egamizning kalomi shudir.

2–BOB

Mo‘ab

1 Egamiz shunday demoqda:
“Mo‘ab* xalqi gunoh ustiga gunoh qildi!
Men ularni jazosiz qoldirmayman.
Axir, ular Edom shohining qabrini bulg‘adilar,
Suyaklarini kuydirib ohak qildilar.
2 Shunday ekan, Men Mo‘ab ustiga olov yog‘diraman,
Olov Xariyo‘t* qal’alarini kuydirib tashlaydi.
Shovqin–suron ostida, bosqinchilarning hayqiriqlariyu
Burg‘u sadolari ostida Mo‘ab xalqi halok bo‘ladi.
3 Men Mo‘ab hukmdorini yo‘q qilaman,
U bilan birga mulozimlarini qirib tashlayman.”
Egamizning kalomi shudir.

Yahudo

4 Egamiz shunday demoqda:
“Yahudo xalqi gunoh ustiga gunoh qildi!
Men ularni jazosiz qoldirmayman,
Axir, ular qonunlarimdan yuz o‘girdilar.
Qoidalarimni bajarmadilar.
Ota–bobolari singari, soxta xudolarga sig‘inib,
Haq yo‘ldan ozdilar.
5 Shunday ekan, Men Yahudo yurtiga olov yog‘diraman,
Olov Quddus qal’alarini kuydirib tashlaydi.”

Isroil xalqi hukm qilinadi

6 Egamiz shunday demoqda:
“Isroil xalqi gunoh ustiga gunoh qildi!
Men ularni jazosiz qoldirmayman,
Axir, ular aybsizlarni pulga sotyaptilar.
Kambag‘allarni bir juft choriqqa almashtiryaptilar.
7 Yo‘qsilning boshini tuproqqa qorib, oyoq osti qilyaptilar,
Mazlumni yo‘ldan chetga itarib chiqaryaptilar.
Ota va o‘g‘il bitta juvon bilan yotib*,
Meni badnom qilyaptilar.
8 Ular har bir qurbongoh oldida
O‘zlari garovga olgan liboslar ustida yotibdilar*.
O‘z Xudosining uyida,
Jarima evaziga olgan sharobni ichyaptilar.

9 Ey Isroil xalqi, Men sizni deb,

Amor xalqlarini* yo‘q qilgan edim.
Ularning bo‘y–basti sadr daraxtiday baland,
Eman daraxtiday baquvvat bo‘lgan bo‘lsa–da,
Men ularning mevasini qovjiratgan edim,
Ildizini quritgan edim.
10 Amor xalqining yurtini sizlarga mulk qilib beraman deb,
Sizlarni Misr yurtidan olib chiqqandim.
Qirq yil sahroda sizlarga yo‘l ko‘rsatib yurgandim.
11 Farzandlaringizdan payg‘ambarlar tayinladim,
Ba’zi yigitlaringizni, Menga bag‘ishlaninglar*, deb chorladim.
Shunday emasmi, ey Isroil xalqi?!
— deb aytmoqda Egamiz. —
12 Sizlar esa Menga bag‘ishlanganlarga sharob ichirdingiz*,
Payg‘ambarlarimga: «Bashorat qilmanglar!» deb buyurdingiz.

13 Mana endi sizlarni shu qadar ezamanki,
Sizlar og‘ir yuk ostida g‘irchillagan aravaday bo‘lasiz.
14 O‘shanda chaqqonlar ham qochib qutulolmaydi,
Pahlavonlar ham kuchdan qoladi,
Hatto jangchilar ham jonini saqlay olmaydi.
15 Kamonkash dosh berolmaydi,
Choparlar qutqara olmaydi o‘zini,
Otliqlar saqlay olmaydi jonini.
16 O‘sha kuni jasurlarning eng dovuragi ham
Qurol–aslahalarini tashlab qochadi.”
Egamizning kalomi shudir.

3–BOB

1 Ey Isroil xalqi, Egamizning so‘zlariga quloq soling. U Misrdan olib chiqqan butun xalqingizga shunday deb aytmoqda:

2 “Yer yuzidagi barcha xalqlar orasidan
Yolg‘iz sizlarni tanlab olgan edim.
Shu sababdan ham gunohlaringizga toqat qila olmayman,
Qilgan hamma gunohlaringiz uchun sizlarni jazolayman.”

Payg‘ambar Xudoning jarchisidir

3 Ikki kishi kelishib olgandan keyingina birga yo‘lga tushadi.
4 Sher qurbonini ko‘zlab qo‘ysagina, o‘rmonda o‘kiradi,
Yirtqich sher o‘ljasini ushlasagina, uyasida irillaydi.
5 Tuzoqqa yemish qo‘yilsagina, qush sirtmoqqa tushadi,
Tuzoqqa hech narsa ilinmasa, sirtmoq tortilmaydi.
6 Xo‘sh, shaharda burg‘u chalinsa, kim sarosimaga tushmaydi?!
Egamizning irodasisiz hech bir kulfat shaharga kelmaydi.

7 Darhaqiqat, Egamiz Rabbiy O‘z sirini payg‘ambarlariga ayon qiladi,

Sirini o‘sha xizmatkorlariga ayon qilmay turib, U hech narsa qilmaydi.

8 Ana, sher o‘kirdi! Kim qo‘rqmaydi?!
Ana, Egamiz Rabbiy gapirdi! Kim bashorat qilmaydi?!

Samariyaning qismati

9 Ashdod* qal’alarida e’lon qiling,
Misr qal’alarida shunday deb jar soling:
“Samariya* atrofidagi qirlarda to‘planing,
U yerdagi avjiga chiqqan g‘alayonni bir ko‘ring,
Zo‘ravonlikning guvohi bo‘ling.”
10 Egamiz shunday demoqda:
“Samariyaliklar qal’alarini harom boylikka to‘ldirdilar,
To‘g‘rilik nimaligini ular bilmaydilar.”
11 Shu sababdan Egamiz Rabbiy shunday demoqda:
“Dushman* Samariyani qurshovga oladi,
Istehkomlarini vayron qiladi,
Samariya qal’alari talon–taroj bo‘ladi.”

12 Egamiz shunday demoqda: “Arslonning og‘zidan qo‘zichoqni tortib olmoqchi bo‘lgan cho‘pon, qo‘zichoqning ikki tuyog‘ini yoki qulog‘ining bir parchasini tortib oladi, xolos. Samariya aholisi ham shu ahvolga tushadi. U yer–bu yerlarda supayu kursi parchalari qoladi, xolos*.”

13 Parvardigori Olam — Egamiz Rabbiy demoqda:
“Gapimni eshiting! Yoqub nasliga* qarshi guvohlik bering!
14 Men Isroil xalqini qilgan gunohi uchun jazolayman,
O‘sha kuni Baytil* qurbongohlarini vayron qilaman.
Qurbongohning shoxlari kesilib, yerga tushib yotadi*.
15 Men qishki va yozgi saroylarni buzib tashlayman,
Fil suyagi bilan bezatilgan koshonalarni vayron qilaman,
Barcha hashamatli uylarni yo‘q qilaman.”
Egamizning kalomi shudir.

4–BOB

1 Ey Samariya* ayollari, eshiting!
Sizlar Bashandagi* sigirlarday semirib ketgansiz*,
Kambag‘allarga jabr qilasiz, yo‘qsilni ezasiz,
Erlaringizdan ichkilik talab qilasiz.
2 Egamiz Rabbiy O‘z muqaddas nomi haqi ont ichib demoqda:
“Shunday kunlar keladiki,
Sizlarni ilmoqlar bilan sudrab ketishadi,
Har biringizni qarmoqlar bilan tortib ketishadi.
3 Har biringizni devordagi teshiklar orasidan sudrab olib chiqishadi.
Itarib–itarib sizlarni Xermon tomon* olib ketishadi*,
— deb aytmoqda Egamiz. —

4 Qani, endi Baytilga* borib gunoh qilavering!
Gilgalda gunohlaringizni koʻpaytiring!*
Saharda* qurbonliklar keltiring,
Ertasiga ushrlar* olib keling!
5 Xamirturushli nonlarni Menga shukrona nazri qiling,
Koʻngildan chiqarib bergan qurbonligingiz haqida
Jar solib hammaga ayting,
Axir, bunday qilishni xoʻp yaxshi koʻrasiz, ey Isroil xalqi!
— deb aytmoqda Egamiz Rabbiy. —

6 Men hamma shaharlaringizda
Sizlarga tishingizning kirini soʻrdirdim,
Qishloqlaringizni nonga zor qildim,
Shunda ham sizlar Menga qaytmadingizlar,
— deb aytmoqda Egamiz. —

7 Ekinzorlaringizga suv kerak boʻlganda,
Men yomgʻir yogʻdirmadim.
Bir shaharga yomgʻir yogʻdirib,
Boshqasiga yogʻdirmas edim.
Bir dalani yomgʻir suviga toʻydirardim,
Boshqasiga yomgʻir yogʻdirmay, quritar edim.
8 Shunda ikki–uch shahar aholisi suv ichgani
Boshqa shaharga oyogʻini sudrab borardi.
Lekin sizlar suvga toʻymadingizlar.
Shunda ham Menga qaytmadingizlar,
— deb aytmoqda Egamiz. —

9 Men hosilingizga shira va oqqirov kasalini yubordim.
Chigirtkalar* qayta–qayta bogʻu uzumzorlaringizni,
Anjir va zaytun daraxtlaringizni nobud qildi,
Shunda ham sizlar Menga qaytmadingizlar,
— deb aytmoqda Egamiz. —

10 Misrda boʻlgani kabi orangizga falokat* yubordim.
Yigitlaringizni qilichdan oʻtkazdim,
Otlaringizni dushmanlaringizga berdim.
Qarorgohingizdagi jasadlarning qoʻlansa hidi bilan
Dimogʻingizni toʻldirdim.
Shunda ham sizlar Menga qaytmadingizlar,
— deb aytmoqda Egamiz. —

11 Sadoʻm va Gʻamoʻrani* yoʻq qilganim kabi,
Men koʻplaringizni yoʻq qildim.
Ba’zilaringizni esa olov ichidan qutqarganday qutqargandim.

Shunda ham Menga qaytmadingizlar,
— deb aytmoqda Egamiz. —

12 Shunday ekan, ey Isroil,
Men seni jazolayman.
Xudoning oldida hisob berishga tayyorlangin!”

13 Zero, Xudo tog‘larga shakl berdi,
Shamolni yuzaga keltirdi.
U rejalarini insonlarga ayon qiladi,
Tonggi shafaq nurini zulmatga aylantiradi,
Tog‘ cho‘qqilari uzra yuradi.
Parvardigori Olam — Egamizdir Uning nomi!

5–BOB

Tavba–tazarruga da’vat

1 Ey Isroil xalqi, men sen haqingda aytayotgan marsiyamga quloq solgin:

2 Bokira qiz Isroil talafot ko‘rdi,
Endi u hech qachon o‘zini o‘nglab olmaydi!
Tashlab ketilgan, u o‘z yurtida ag‘nab yotadi,
Unga turish uchun hech kim yordam bermaydi.

3 Egamiz Rabbiy shunday demoqda:
“Bir shahringdan jangga chiqqan mingta jangchidan
Yuztasi omon qoladi.
Boshqa shahringdan jangga chiqqan yuzta jangchidan
O‘ntasi omon qoladi.”

4 Isroil xalqiga Egamiz shunday demoqda:
“Menga intilinglar, shunda yashaysizlar.
5 Baytilga* esa bormanglar,
Gilgalga* oyoq bosmanglar,
Bersheba* tomonga o‘tib yurmanglar.
Axir, Gilgal aholisi surgun qilinadi,
Baytil butkul vayron bo‘ladi.”

6 Egamizga intiling, shunda yashaysiz.
Aks holda, ey Yusuf xonadoni*,
Sizga Xudo olovday yopiriladi,
Olov Baytilni yamlab yutadi.
Yong‘inni o‘chiradigan odam bo‘lmaydi.
7 Ey adolatni zahar o‘tga aylantirganlar,
Haqiqatni yerga uloqtirganlar,
Sizning holingizga voy!

8 Parvin* va Hulkar* yulduzlarini yaratgan Egamizdir,
U zulmatni tonggi nurga aylantiradi,
Kunduzni qorong‘ilikka cho‘ktirib, tun qiladi,
Dengiz suvlarini yig‘ib, yer yuziga sochib yuboradi.
Egamizdir Uning nomi.
9 U kuchlilar ustiga kulfat yog‘diradi,
Qal’alarni kulfatga giriftor qiladi.

10 Sizlar esa adolatli qozilardan nafratlanasizlar,
Haqiqatni gapiruvchilardan hazar qilasizlar.
11 Kambag‘alning bug‘doyidan katta soliq olib, bechorani ezasizlar.
Shunday ekan, yo‘nilgan toshdan qurgan uylaringizda yashamaysizlar.
Barpo qilgan go‘zal uzumzorlaringiz mahsulidan sharob ichmaysizlar.
12 Men bilaman sizlar gunohga botib ketganingizni,
Ko‘plab jinoyatlarga qo‘l urganingizni.
Sizlar aybsiz kishini ezib, pora yeysizlar,
Mahkamalarda faqirni adolatdan mahrum qilasizlar.
13 Shuning uchun farosatli odam bunday zamonda sukut saqlaydi,
Axir, bu yovuz zamondir.

14 Yomonlikning emas,
Yaxshilikning payida bo‘linglar,
Shunda yashaysizlar.
Parvardigori Olam — Egamiz ham,
O‘zlaringiz aytganingizday sizlar bilan birga bo‘ladi.
15 Yomonlikdan nafratlanib, yaxshilikni seving,
Mahkamalarda* adolat o‘rnating.
Balki shunda, ey Yusuf naslidan* omon qolganlar,
Parvardigori Olam — Egamiz sizga iltifot qilar.

16 Ey Isroil xalqi, gunohlaringiz tufayli
Rabbiy, Parvardigori Olam — Egamiz shunday demoqda:
“Hamma shahar maydonlarida odamlar dod–faryod ko‘tarishadi,
Hamma ko‘chalarda «Voy jonim! Voy jonim!» deya yig‘i–sig‘i qilishadi.
Dehkonlarni aza tutish uchun chaqirishadi,
Marsiya aytadigan yig‘ichi ayollar yollanadi*.
17 Har bir uzumzordan fig‘on eshitiladi,
Axir, Men orangizdan o‘tib, sizlarni jazolayman.”
Egamizning kalomi shudir.

Egamizning kuni — zulmat kuni

18 Egamizning kunini* intizorlik bilan kutganlarning holiga voy!
Nega Egamizning kunini kutyapsizlar?
Bu kun yorug‘lik emas, zulmat olib keladi–ku!
19 O‘sha kuni sizlar go‘yo arslondan qochib,
Ayiqqa duch kelgan odamday bo‘lasizlar.

O‘sha odam ayiqdan ham qochib, uyiga keladi,
Qo‘li bilan devorga suyanganda uni ilon chaqadi.
20 Nahot tushunmasangiz?!
Egamizning kuni yorug‘lik emas,
Qorong‘ilik olib keladi–ku!
O‘sha kun nursiz, zulmat kuni bo‘ladi!

21 Egamiz shunday deydi:
“Ey Isroil xalqi!
Men marosimlaringizdan nafratlanaman,
Ulardan hazar qilaman.
Muqaddas yig‘inlaringizni xush ko‘rmayman.
22 Menga qurbonliklar kuydirsangiz ham,
Don nazrlarini atasangiz ham,
Men ularni qabul qilmayman.
Semiz hayvonlaringizni so‘yib,
Tinchlik qurbonliklarini keltirsangiz ham,
Men ulardan rozi bo‘lmayman.
23 Bo‘ldi, bas qiling sershovqin ashulalaringizni,
Men eshitmayman toringizning navolarini.
24 Undan ko‘ra, suvday oqsin adolat,
To‘xtovsiz daryoday oqsin haqiqat.

25 Ey Isroil xalqi, sizlar juda ko‘p qurbonliklar keltirasizlar! Men ota–bobolaringizni qirq yil sahroda olib yurganimda, ulardan shu qadar ko‘p qurbonligu nazrlarni talab qilmadim! 26-27 Sizlar o‘zingiz uchun yasagan ilohiy shohingiz Sikkut va yulduz xudosi Kivunning* tasvirlariga topinib yuribsizlar. Shuning uchun Men sizlarni Damashq ortidagi yurtga* surgun qilaman. Qani endi turinglar! Xudolaringizni ko‘tarib olib ketinglar.” Egamizning kalomi shudir. Parvardigori Olamdir Uning nomi.

6–BOB

1 Ey Quddusda* rohat–farog‘atda yashaganlar, holingizga voy!
Ey Samariya tog‘ida* bexatar bo‘lganlar, holingizga voy!
Sizlar o‘zlaringizni eng sara xalqning obro‘li odamlari deb bilasizlar,
Bizga bosh bo‘linglar, deb Isroil xalqi sizning oldingizga keladi.
2 Kalney shahriga borib, uning ahvolini ko‘ringlar.
U yerdan buyuk Xomat shahriga o‘tib, holini bilinglar.
Filist xalqining Gat* shahriga ham borib ko‘ringlar.
Sizlarning bu shohliklardan afzalroq joyingiz bormidi?!
Yoki yeringiz ularnikidan kattaroqmidi?!*
3 Kulfat kuni kelishiga sizlar ishonmayapsizlar,
Zo‘ravonlik hukmron bo‘lishiga sababchi bo‘lyapsizlar!

4 Sizlar fil suyagidan yasalgan supalarda cho‘zilib yotasizlar,
Kursilarda* yonboshlab o‘tirasizlar,

Qo‘zichoqlarning go‘shtidan lazzatlanasizlar,
Semirtirilgan buzoqlarning go‘shtidan taom yeysizlar,
5 O‘zlaringizcha Dovud kabi kuylar bastalaysiz,
Arfaning yangragan navolariga ashulalar aytasiz.
6 Qadahlab sharob ichasiz,
Xushbo‘y moyning eng a’losini badaningizga surtasiz.
Xalqingiz — Yusuf naslining* kulfati uchun esa qayg‘urmaysiz!
7 Shunday ekan, sizlar birinchi bo‘lib surgun qilinasiz,
Yonboshlab o‘tkazgan ziyofatlaringiz tugaydi.

8 Egamiz Rabbiy O‘z nomini o‘rtaga qo‘yib ont ichdi,
Ha, Parvardigori Olam — Egamiz shunday demoqda:
“Men Yoqub naslining* takabburligidan nafratlanaman,
Ularning qal’alaridan hazar qilaman.
Samariya shahrini va u yerdagi hamma narsani
Men dushmanning* qo‘liga beraman.”

9 Agar bir uyda o‘nta odam qolgan bo‘lsa, ularning hammasi o‘ladi. 10 Ularning yaqin qarindoshi va go‘rkov marhumlarni dafn qilmoqchi bo‘lib kelishadi. Yaqin qarindoshi jasadlarni olib chiqqanda go‘rkovdan: “Yana jasadlar bormi?” deb so‘raydi. Go‘rkov: “Yo‘q”, deb javob beradi. Keyin esa: “Jim!* Egamizning nomini tilga olmaylik!” deb aytadi.

11 Ana, Egamiz amr bermoqda:
Koshonalar buzib tashlanadi,
Kulbalar yakson bo‘ladi.

12 Otlar qoyalar ustida chopa olmaydi–ku!
Dengizni* ho‘kizlar bilan shudgor qilib bo‘lmaydi–ku!
Qoyil–e, sizlar esa adolatni zaharga aylantirdingiz,
Solihlikning shirin mevasini achchiq qildingiz.
13 Sizlar: “Lo‘davor shahrini*
Qo‘lga kiritdik”, deb maqtanib yuribsizlar.
“Karnayim shahrini*
O‘z kuchimiz bilan yengdik”, deb aytyapsizlar.
14 Parvardigori Olam — Egamiz shunday demoqda:
“Ey Isroil xalqi, qaranglar!
Men sizlarga qarshi bir xalqni qo‘zg‘atdim.
Ular Levo–Xomatdan* to Arabadagi soylikkacha* sizlarni ezadilar.”

7–BOB

Chigirtkalar haqidagi vahiy

1 Egamiz Rabbiy menga shunday vahiy ko‘rsatdi: dehqonlar shoh saroyi uchun bug‘doy o‘rib olganlaridan keyin, ikkinchi ekinlar unib chiqa boshlabdi*. Shu paytda Egamiz gala–gala chigirtkalarni* paydo qildi. 2 Chigirtkalar yer yuzida ko‘karib turgan

hamma narsani yeb bitirishibdi. Shunda men yolvordim:

“Ey Egam Rabbiy, iltijo qilaman, gunohimizdan o‘tgin!
Yoqub nasli* bunga bardosh bera olarmikin?!
O‘zi kichkina bir xalq bo‘lsa!”
3 Shunda Egamiz shaxtidan qaytdi:
“Bunday qilmayman”, deb menga aytdi.

Olov haqidagi vahiy

4 Egamiz menga yana bir vahiy ko‘rsatdi: Egamiz Rabbiy xalqini olov bilan* jazolamoqchi bo‘libdi. Olov buyuk dengizni* yamlabdi, keyin yurtni yondira boshlabdi.
5 Shunda men yolvordim:

“Ey Egam Rabbiy, o‘tinaman, bas qilgin!
Yoqub nasli bunga bardosh bera olarmikin?!
O‘zi kichkina bir xalq bo‘lsa!”
6 Shunda Egamiz shaxtidan qaytdi.
Egamiz Rabbiy: “Xo‘p, bunday ham qilmayman”, deb menga aytdi.

Shoqul haqidagi vahiy

7 Men yana bir vahiy ko‘rdim: shoqul* yordamida qurilgan devorning oldida Rabbiy turgan ekan. U devorning to‘g‘ri yoki qiyshiqligini shoqul bilan tekshirayotgan edi.
8 Egamiz mendan:
— Nimani ko‘ryapsan, Amos? — deb so‘radi.
— Shoqulni, — deb javob berdim men. So‘ng Rabbiy shunday dedi:

“Qara, Men shoqul yordamida
Xalqim Isroilni tekshiraman.
Endi ularga shafqat qilmayman.
9 Is’hoq naslining* sajdagohlari* vayron bo‘ladi,
Ha, Isroilning qadamjolari yo‘q qilinadi,
Men shoh Yorubom* xonadoniga qilich bilan hujum qilaman*.”

Amos va ruhoniy Emoziyo

10 Baytildagi* ruhoniy Emoziyo Isroil shohi Yorubomga xabar yuborib, shunday dedi:
— Amos Isroil xalqi orasida sizga qarshi fitna uyushtirmoqda. Uning bu so‘zlarini xalqimiz ko‘tara olmaydi. 11 Amos shunday deb aytib yuribdi: “Yorubom qilichdan halok bo‘ladi, Isroil xalqi o‘z yurtidan albatta surgun qilinadi.”
12 Emoziyo Amosning o‘ziga esa shunday dedi:
— Ey valiy, bu yerdan chiqib ket! Yahudo yurtiga bor. Noningni o‘sha yerdan topib yegin. Bashoratlaringni ham o‘sha yerda ayt. 13 Ammo Baytilda qayta bashorat qila ko‘rma, chunki bu shohning qutluq joyidir, shohligimizning sajdagohidir.
14 Amos esa Emoziyoga shunday javob berdi:
— Mening mashg‘ulotim payg‘ambarlik emas, payg‘ambarlarga shogird ham tushmaganman. Men bir chorvador edim, shikamora–anjir daraxtlarini* ham parvarish qilardim. 15 Bir kuni suruvni haydab ketayotganimda Egamiz meni chaqirib: “Bor, xalqim Isroilga bashorat qil”, deb aytdi. 16 Ey Emoziyo, endi Egamizning so‘zlarini eshit!

Sen menga: “Isroil haqida bashorat qilma, Is’hoq xonadoniga* qarshi gap gapirma”, deb
aytyapsan. 17 Shu sababdan Egamiz shunday demoqda:

“Sening xotining shaharda fohishalik qiladi,
O‘g‘il–qizlaring qilichdan halok bo‘ladi.
Yering boshqalarga bo‘lib beriladi.
O‘zing esa harom bir yurtda o‘lasan.
Isroil xalqi o‘z yurtidan albatta surgun qilinadi.”

8–BOB

Yetilib pishgan mevalar haqidagi vahiy

1 Egamiz Rabbiy menga yana vahiy ko‘rsatdi: bir savat yetilib pishgan mevalar bor
ekan. 2 Egamiz mendan:
— Amos, nimani ko‘ryapsan? — deb so‘radi.
— Bir savat yetilgan mevani, — deb javob berdim men. So‘ng Egamiz menga
shunday dedi:

“Xalqim Isroil ham jazo uchun yetilib turibdi.
Endi Men ularga shafqat qilmayman.
3 O‘sha kuni Ma’baddagi ashulalar marsiyaga aylanadi,
— deb aytmoqda Egamiz Rabbiy. —
Hamma joyda jasadlar yotadi.
Sukunat bosgan!”

4 Ey yo‘qsillarni ezadiganlar, quloq solinglar!
Ey yurtdagi kambag‘allarni yo‘q qilganlar, eshitinglar!
5 Sizlar shunday aytasizlar:
“Yangi oy shodiyonasi tezroq tamom bo‘la qolsa–yu,
Donni sotsak.
Shabbat kuni* tezroq o‘tsa–yu,
Bug‘doyni bozorga olib chiqsak.
Shunda biz og‘irligini kamaytirib,
Narxini oshiramiz,
Tarozidan urib, odamlarni aldaymiz.
6 Bug‘doy chiqitlarini ham sotib yuboramiz.
Yo‘qsilni bir juft choriqqa sotib olamiz,
Kambag‘alni kumushga xarid qilamiz.”

7 Yoqub naslining takabburligini ko‘rib, Egamiz shunday deb ont ichdi*:
“Ularning qilmishlarini Men hech qachon unutmayman,
Ularni albatta jazolayman.
8 Shu sababdan yer titraydi!
Yer yuzida yashovchi har bir mavjudot aza tutadi!
Butun yer yuzi daryo to‘lqinlariday larzaga keladi,
Ha, Nil suvlariday ko‘tarilib, pastga tushadi*.”

9 Egamiz Rabbiy demoqda:
“Ey Isroil xalqi,
O‘sha kuni shunday qilamanki,
Quyosh tush paytida botadi,
Kuppa–kunduzi yer yuzini qorong‘ilik qoplaydi.
10 Bayramlaringiz motamga aylanadi,
Hamma ashulalaringiz marsiya bo‘ladi.
Sizlar hammalaringiz qayg‘udan qanorga o‘ranasiz,
Aza tutganingizdan sochingizni qirdirasiz*.
Yolg‘iz o‘g‘lidan judo bo‘lgan ota–onaga o‘xshab qolasiz.
O‘sha kun oxiriga qadar achchiq kulfatday bo‘ladi.”

11 Egamiz Rabbiy demoqda:
“Shunday kunlar keladiki,
Men yurtga ocharchilik yuboraman.
Odamlar non bilan suvni emas,
Men, Egangizning so‘zini qo‘msab, och qolishadi.
12 Ular Mening so‘zimni eshitmoqchi bo‘lib,
Bir dengizdan boshqa dengizgacha oyog‘ini sudrab borishadi,
Shimoldan sharqqa yo‘l olishadi.
U yoqdan–bu yoqqa yurib, sarson bo‘lishadi–yu,
Ammo Men, Egangizning so‘zini eshita olishmaydi.
13 O‘sha kuni go‘zal qizlaru baquvvat yigitlar
Tashnalikdan hushidan ketadilar.
14 Axir, ular Samariyaning sharmanda ma’budasi* nomi bilan
Qasam ichib yuribdilar,
«Ey Dan shahri*, xudoying shohid», deb aytib yuribdilar,
«Bershebaga* olib boradigan ziyorat yo‘li haqi», deb yuribdilar.
Ammo ular yiqilib tushadilar, qaytib turmaydilar.”

9–BOB

Hukm haqidagi vahiy

1 Men qurbongohning* oldida turgan Rabbiyni ko‘rdim, U shunday dedi:

“Sajdagoh ustunqoshlariga shunday zarba beringlarki,
Poydevorlari larzaga kelsin.
Ustunqoshlar odamlar ustiga o‘pirilib tushsin.
Omon qolganlarni Men qilichdan o‘tkazaman,
Ulardan birontasi ham qochib ketolmaydi.
Hech qaysisi qutulib qolmaydi.

2 Ular yer qazib, o‘liklar diyoriga* kirishsa ham,
Men qo‘limni uzatib, ularni chiqarib olaman.
Osmonga chiqib olishsa ham,

U yerdan tortib tushiraman.
3 Karmil choʻqqisida yashirinib olishsa ham,
Ularni ovlab, qoʻlga tushiraman.
Mendan qochib, dengiz tubiga bekinib olishsa ham,
Dengiz iloniga amr berib chaqtiraman.
4 Dushmanlar ularni asirlikka olib ketishsa ham,
Qilichga amr berib, hammasini qirib tashlayman.
Ularga yaxshilik emas, yomonlik keltirishga qaror qildim.”

5 Sarvari Olam — Rabbiy
Yerga qoʻl tekkizsa, yer oʻpirilib ketadi,
Butun yer yuzi Nil suvlariday
Baland koʻtarilib, pastga tushadi*.
Yerda yashovchi har bir mavjudot aza tutadi.
6 Egamiz osmonda Oʻziga maskan qurdi,
Yer uzra osmon gumbazini* oʻrnatdi.
Dengiz suvlarini yigʻib,
Yer yuziga sochib yuboradigan Oʻshadir.
Egamizdir Uning nomi.

7 Egamiz shunday demoqda:
“Ey Isroil xalqi,
Sizning Habashistonliklardan* ortiq joyingiz bormidi?!
Men Isroilni Misrdan qanday olib chiqqan boʻlsam,
Filist xalqini ham xuddi shunday Xaftoʻrdan* olib chiqqanman,
Oram xalqini ham Xirdan* olib chiqqanman.
8 Men, Egangiz Rabbiy,
Gunohkor Isroil shohligini kuzatib turibman.
Uni yer yuzidan supurib tashlayman,
Yoqub naslini* esa batamom yoʻq qilmayman,
— deb aytmoqda Egamiz. —

9 Men amr beraman,
Shunda barcha xalqlar orasida,
Bugʻdoy elaganday Isroilni gʻalvirdan oʻtkazaman.
Yaxshi donning birontasi yerga tushmaydi.
10 Xalqim orasidagi hamma gunohkorlar esa qilichdan halok boʻladi,
Axir, bunday odamlar shunday aytishadi:
«Koʻrmaymiz biz yomonlik,
Boshimizga tushmas biror koʻrgilik.»”

Isroil shohligi kelajakda qayta tiklanadi

11-12 Egamiz shunday demoqda:
“Oʻsha kuni Men Dovud shohligini qayta tiklayman.
Hozir u qiyshayib ketgan kulbaday boʻlsa–da,
Devorlaridagi yoriq joylarini tuzataman,

Buzilgan joylarini ko‘taraman.
Uni qayta qurib, ilgarigi holatga qaytaraman.
Shunda Isroil xalqi egalik qiladi
Edomliklarning omon qolganlariga,
Qo‘lim ostidagi hamma xalqlarga.”
Egamiz aytganlarini bajo qiladi.

13 Egamiz shunday demoqda:
“Shunday vaqtlar keladiki,
Dehqon hosilni yig‘ib ulgurmasdan,
Yerni shudgor qilish vaqti keladi.
Sharobni tayyorlab ulgurmasdan,
Uzumning yangi hosili pishadi.
Tog‘lardan shirin sharob tomadi,
Hamma qirlardan pastga oqib tushadi.
14 Men xalqimni yana farovonlikka erishtiraman*.
Ular vayron bo‘lgan shaharlarni qayta qurib,
U yerda o‘rnashib oladilar.
Uzumzorlar barpo qilib, sharobini ichadilar.
Bog‘lar yaratib, mevalarini yeydilar.
15 Men ularni o‘z yurtida ko‘kartiraman.
Men bergan yurtdan
Ularni hech kim sug‘urib tashlamaydi.”

Egangiz Xudoning kalomi shudir.

IZOHLAR

Yahudo — mazkur kitobda shimoliy shohlik *Isroil* degan nom bilan, janubiy shohlik esa *Yahudo* degan nom bilan yuritilgan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi ISROIL va YAHUDO so‘zlariga qarang.

1:1 *Taxuva* — Yahudo yurtidagi shahar bo‘lib, Quddusdan qariyb 16 kilometr janubda joylashgan.

1:1 *Isroil* — mazkur kitobda shimoliy shohlik *Isroil* degan nom bilan, janubiy shohlik esa *Yahudo* degan nom bilan yuritilgan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi ISROIL va YAHUDO so‘zlariga qarang.

1:1 *zilzila* — Yahudo shohi Uzziyo davrida (ya’ni miloddan oldingi 781-740 yillarda) qattiq zilzila bo‘lgani tarixdan ma’lum. Bu zilzila haqida Zakariyo 14:5 da ham aytib o‘tilgan.

1:1 *Yoho‘sh* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Yo‘sh*.

1:1 *…Uzziyo…Yorubom…* — Uzziyo miloddan oldingi 781-740 yillarda, Yorubom miloddan oldingi 783-743 yillarda hukmronlik qilgan.

1:2 *Sion* — Quddusdagi Ma’bad qurilgan tepalik Sion tog‘i deb atalgan. Eski Ahddagi she’riy parchalarda va payg‘ambarlar bitiklarida Sion so‘zi ko‘pincha Quddus shahriga yoki Xudoning xalqiga nisbatan ishlatilgan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi SION so‘ziga qarang.

1:2 *qurib qoladi* — yoki *motam tutadi*.

1:2 *Karmil* — Isroilning shimolida, O‘rta yer dengizi bo‘yida joylashgan tog‘. Karmil tog‘i unumdorligi va go‘zal tabiati bilan mashhur edi.

1:3 *Damashq* — Oram yurtining poytaxti.

1:3 *…ular Gilad aholisini temir tishli xo‘ptir bilan yanchdi* — donni boshoqdan ajratish jarayoni yanchish deyiladi. Qadimgi Yaqin Sharqda bu ish don boshoqlari ustidan xo‘ptir yurgizish orqali bajarilgan (xo‘ptir — ostiga uchli tosh yoki temir mahkamlangan og‘ir taxta). Yanchish so‘zi ko‘pincha Eski Ahdda hukmga yoki urushda halokatga duchor bo‘lishga nisbatan ko‘chma ma’noda ishlatilgan. Bu oyatda Damashq aholisi Gilad aholisini “temir tishli xo‘ptir bilan yanchigani”, ya’ni nihoyatda qattiq kulfatlarga duchor qilgani uchun Xudo Damashqliklarni jazolamoqchi ekani bayon qilingan. Gilad Isroilning shimoli–sharqida joylashgan bo‘lib, Oram yurti bilan chegaradosh hudud edi. Oramning poytaxti Damashq edi. O‘sha davrda Oram xalqi Isroilning ashaddiy dushmanlaridan biri bo‘lib, ularga o‘taketgan vahshiyliklar qilgan edi (4 Shohlar 8:11-12, 10:32-33, 13:3, 22 ga qarang).

1:4 *…Xazayil…Banhadad…* — Oramning ikki shohi. Oramning bir nechta shohi Banhadad ismi bilan atalgan edi. Bu oyatdagi Banhadad shoh Xazayilning o‘g‘li bo‘lishi mumkin (4 Shohlar 8:14-15, 13:3 ga qarang).

1:5 *Qabihlik* — ibroniycha matnda *Obun*, ma’nosi *qabihlik*. Bu so‘z Damashq shahri va Oram yurtiga nisbatan ishlatilgan haqoratomuz nom bo‘lishi mumkin.

1:5 *Bayt–Eden* — ibroniychadagi ma’nosi *rohat uyi*. Furot daryosi bo‘yida joylashgan

Oram yurtidagi bir shaharning nomi bo‘lsa kerak. Ammo bu o‘rinda Damashq shahriga nisbatan kinoya sifatida ishlatilgan nom bo‘lishi mumkin.

1:5 *saltanat hassasi* — bu maxsus hassa bo‘lib, shoh va hukmdorlarning hokimiyatini bildiruvchi ramz edi.

1:5 *Xir yurti* — Oram xalqi kelib chiqqan yurt (9:7 ga qarang). Bu yurt qayerda joylashgani aniq ma’lum emas. Xudo Oram xalqini erishgan har bir yutuqlaridan mahrum qiladi, ular yana oldingiday zulm ostida qoladilar, zaif xalq bo‘ladilar.

1:6 *G‘azo* — Filist xalqi quyidagi beshta shahar–davlatni barpo qilgan edi: G‘azo, Ashdod, Ashqalon, Exron va Gat. Bu shaharlar Filistiyada, O‘rta yer dengizi yaqinida joylashgan edi.

1:8 *hukmdori* — yoki *aholisi*.

1:9 *Tir* — Finikiyada muhim ahamiyatga ega bo‘lgan shahar. Bu shahar Isroildan shimolda, O‘rta yer dengizi bo‘yida joylashgan edi. Bugungi kunda bu yer Livan mamlakatining janubiy hududini tashkil qiladi.

1:11 *Edom* — bu yurt O‘lik dengizning janubida joylashgan edi.

1:11 *qardoshi Isroil xalqi* — Isroil xalqi Yoqubdan, Edom xalqi esa Yoqubning akasi Esovdan kelib chiqqan edi.

1:11 *Ularni qilich bilan ta’qib qilib…* — Muso yashagan davrdan boshlab, Edom xalqi Isroilga dushmanlik qilardi (Sahroda 20:14-21 ga qarang).

1:12 *…Temon…Bozrax…* — Edomga qarashli ikki shahar.

1:13 *Ommon* — bu yurt Iordan daryosining sharq tomonida joylashgan edi.

1:14 *Rabba shahri* — Ommon yurtining poytaxti.

2:1 *Mo‘ab* — bu yurt O‘lik dengizning sharqida joylashgan edi.

2:2 *Xariyo‘t* — Mo‘ab yurtidagi shahar. Bu shahar Mo‘ab xalqining xudosi Xamo‘shga sajda qilish o‘chog‘i bo‘lgan.

2:7 *Ota va o‘g‘il bitta juvon bilan yotib…* — Tavrot qonuniga ko‘ra, bu qat’iy man qilingan (Levilar 20:11-12, Qonunlar 22:30, 27:20 ga qarang). Bu o‘rinda ota va o‘g‘il o‘zlarining uyida yashayotgan cho‘ri qizning ojizligidan foydalanib, uni zo‘rlashganiga ishora bo‘lishi mumkin.

2:8 *…O‘zlari garovga olgan liboslar ustida yotibdilar* — bunday xatti–harakat kambag‘allarning ehtiyojini va Tavrot ta’limotini pisand qilmaslikni ko‘rsatadi (Qonunlar 24:12-13, 17 ga qarang).

2:9 *Amor xalqlari* — bu o‘rinda umumiy nom bo‘lib, bu nom ostida Isroil xalqi Kan’on yurtini egallamasdan oldin o‘sha yerda yashagan jamiki xalqlar nazarda tutilgan.

2:11 *Menga bag‘ishlaninglar* — ibroniycha matnda alohida bir so‘z ishlatilgan bo‘lib, bu so‘z Xudoga xizmat qilish uchun maxsus va’da bergan odamni bildiradi. Ba’zi insonlar maxsus va’da berib, o‘zlarini birmuncha vaqt Xudoning xizmatiga bag‘ishlar edilar. Ba’zi birovlar esa tug‘ilgan paytlaridanoq shunday va’da orqali Xudoga bag‘ishlanganlar. Tavrot qonuniga ko‘ra, o‘zini Xudoga butunlay bag‘ishlab nazr qilgan odam sharob yoki o‘tkir ichimlik ichmasligi, sochini oldirmasligi, murdaga tegmasligi kerak edi (Sahroda

6:1-8, 21 ga qarang). Ibroniycha matnda shu ma'nodagi so'z mazkur bobning 12–oyatida ham bor.

2:12 *...Menga bag'ishlanganlarga sharob ichirdingiz...* — Tavrotga ko'ra, o'zini Xudoga nazr sifatida bag'ishlagan odam sharob yoki o'tkir ichimlik ichishi mumkin emasdi (shu bobning 11–oyati izohiga qarang).

3:9 *Ashdod* — 1:6 izohiga qarang.

3:9 *Samariya* — Isroilning, ya'ni shimoliy shohlikning poytaxti.

3:11 *Dushman* — ibroniycha matnda *Buyuk shoh*. Miloddan oldingi 722 yilda Ossuriya shohi Shalmanasar Isroilga, ya'ni shimoliy shohlikka hujum qilib, poytaxti Samariyani zabt etdi. So'ng Isroil xalqining aksariyat qismini Ossuriyaga surgun qildi (4 Shohlar 17:1-6 ga qarang). Shunday qilib, shimoliy shohlik tag–tomiri bilan yo'q bo'lib ketdi.

3:12 *Arslonning og'zidan...qoladi, xolos* — qo'yni birorta yirtqich hayvon bo'g'izlab ketganda, buning haqiqatligini isbotlash uchun cho'pon qo'y murdasining qolgan–qutganini qo'yning egasiga ko'rsatar edi (Ibtido 31:39, Chiqish 22:10-13 ga qarang). Bu oyatda Samariya shahri bo'g'izlangan qo'zichoqqa o'xshatilgan. Samariya bosqinchilar hujumidan vayron bo'ladi. Matnda aytib o'tilgan tashlandiq supalar, kursi parchalari oldin Samariyada rohat–farog'atda yashagan boylarni Xudo gunohlari uchun hukm qilganining dalilidir (shu bobning 6-8–oyatlariga va 6:4-6 ga qarang).

3:13 *Yoqub nasli* — Xudo Yoqubning ismini Isroil deb o'zgartirgan (Ibtido 32:27-28 ga qarang), shuning uchun ko'pincha Yoqub nasli deganda Isroil, ya'ni shimoliy shohlik aholisi nazarda tutiladi.

3:14 *Baytil* — ibroniychadagi ma'nosi *Xudoning uyi*. Ammo Isroil xalqi Baytilni butparastlik o'chog'iga aylantirgan edi (7:13 ga va 3 Shohlar 12:28-33, 4 Shohlar 10:29 ga qarang).

3:14 *Qurbongohning shoxlari kesilib, yerga tushib yotadi* — Baytildagi qurbongoh Quddusdagi qurbongohga o'xshatib yasalgan bo'lib, uning to'rtta burchagi hayvon shoxining shaklida edi. Qurbongohning shoxlari kuch va madad ramzi bo'lgan.

4:1 *Samariya* — Isroilning, ya'ni shimoliy shohlikning poytaxti.

4:1 *Bashan* — Jalila ko'lining shimoli–sharqida joylashgan bo'lib, o'zining ko'm–ko'k yaylovlari va nasldor, sog'lom chorvasi bilan mashhur edi.

4:1 *Sizlar...semirib ketgansiz...* — Qonunlar 32:15 ga qarang.

4:3 *Xermon tomon* — ibroniycha matnda *Xarmon tomon*. Xarmon degan joy haqida hech qanday ma'lumot yo'q. Xarmon Xermon tog'ining boshqa bir nomi bo'lishi mumkin. Xermon tog'i Samariya shahrining shimoli–sharqida, Ossuriya yurti tomonda bo'lgan.

4:3 *Itarib–itarib sizlarni Xermon tomon olib ketishadi...* — ibroniycha matnda *Sizlarni Xermon tomon uloqtirishadi*.... Samariya xalqining to'satdan, zo'ravonlik bilan olib ketilishiga ishora.

4:4 *Baytil* — 3:14 ning birinchi izohiga qarang.

4:4 *Gilgalda gunohlaringizni ko'paytiring!* — Isroil xalqi Gilgalda butlarga sajda qilish uchun sajdagoh qurgan edi (Xo'sheya 4:15, 9:15 ga qarang).

4:4 *Saharda...* — yoki *Har kuni tongda*.... Bu holatda kinoyali ohangda bo'rttirib gapirish

anglashiladi. Ehtimol, ziyoratchilar sajdagohga kelganlaridan keyin, ertasi kuni tongda qurbonlik keltirganlar, uchinchi kuni esa ushrlarini berganlar.

4:4 *ushr* — har qanday daromadning o‘ndan bir qismi.

4:9 *Chigirtkalar* — ba’zan to‘da–to‘da bo‘lib kelib, dalalardagi hosilga katta zarar yetkazadigan hasharot.

4:10 *falokat* — Chiqish 12:29-30 ga qarang.

4:11 *Sado‘m va G‘amo‘ra* — aholisining o‘ta buzuqligi oqibatida Egamiz vayron qilgan ikkita shahar (Ibtido 18:16-19:28 ga qarang).

5:5 *Baytil* — 3:14 ning birinchi izohiga qarang.

5:5 *Gilgal* — 4:4 ning ikkinchi izohiga qarang.

5:5 *Bersheba* — bu shahar Yahudoda, ya’ni janubiy shohlikda joylashgan. Bershebada bir sajdagoh bor edi. Isroil, ya’ni shimoliy shohlik aholisi ham ziyorat qilgani shu sajdagohga kelardi (8:14 ga va 4 Shohlar 23:8 ga qarang).

5:6 *Yusuf xonadoni* — Isroil, ya’ni shimoliy shohlik nazarda tutilgan. Shimoliy shohlikning ikkita asosiy qabilasi — Efrayim va Manashe qabilalari Yusufdan kelib chiqqan edilar.

5:8 *Parvin* — kichkina, yorqin burj. Parvin “Yetti opa–singil” degan nom bilan ham tanilgan (yunon mifologiyasiga ko‘ra, bular Atlasning yetti qizi bo‘lgan).

5:8 *Hulkar* — katta burj bo‘lib, burjdagi yulduzlarning joylashuvi ovchi shaklini hosil qiladi. Hulkar Orion nomi bilan ham tanilgan. Yunon mifologiyasiga ko‘ra, Orion ovchi bo‘lgan.

5:15 *Mahkamalar* — ibroniycha matnda *Darvoza*. Qadimgi paytlarda sud kengashi ko‘pincha shahar, saroy yoki ma’bad darvozasi oldidagi ochiq maydonda o‘tkazilardi.

5:15 *Yusuf nasli* — shu bobning 6–oyati izohiga qarang.

5:16 *…Marsiya aytadigan yig‘ichi ayollar yollanadi* — qadimgi Isroilda ba’zan dafn marosimlari paytida dod–faryod qilib, aytib yig‘lash uchun yig‘ichilar yollanardi.

5:18 *Egamizning kuni* — Eski Ahddagi payg‘ambarlar bitiklarida bir necha marta uchraydigan ibora. Ko‘pincha bu ibora Xudo beradigan jazoga ishora qiladi. Bu ibora yana qiyomat kunidagi Xudoning hukmiga nisbatan ham ishlatiladi. O‘sha kuni Xudo O‘z dushmanlari ustidan g‘alaba qozonadi va ularni jazolaydi, O‘ziga sodiq qolganlarga esa orom bag‘ishlaydi, ularga tinchlik va qut–barakalar ato qiladi.

5:26-27 *…Sikkut…Kivun…* — ibroniycha matndan. Qadimiy yunoncha tarjimada *…Mo‘lax…Rayfon…*. Sikkut va Kivun Ossuriya xalqi sajda qilgan xudolar bo‘lgan.

5:26-27 *Damashq ortidagi yurt* — 3:11 izohiga qarang.

6:1 *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion*. 1:2 ning birinchi izohiga qarang.

6:1 *Samariya tog‘i* — Isroil, ya’ni shimoliy shohlikning poytaxti Samariya nazarda tutilgan. Bu shahar ham, qadimdagi ko‘p shaharlar singari, dushmanlar hujumiga qarshi tura olishi uchun tepalik ustida qurilgan.

6:2 *Kalney…Xomat…Gat…* — Isroil yurtining shimol va g‘arb tomonida joylashgan kuchli shahar–davlatlar.

6:2 *Sizlarning…kattaroqmidi?!* — yoki *Bu shohliklarning Isroil va Yahudodan afzalroq joyi bormidi?! Yoki ularning yeri sizlarnikidan kattaroqmidi?!* Bu holatda mazkur oyatdagi so‘zlar Isroil va Yahudo yo‘lboshchilari tomonidan o‘z xalqiga takabburlik bilan aytgan so‘zlar bo‘ladi. Ammo bu o‘rindagi so‘zlar shunday ma’noda ishlatilgani ehtimoldan uzoq.

6:4 *…fil suyagidan yasalgan supalar…Kursilar…* — qadimiy Isroilda bunday jihozlar faqatgina boy odamlarda bo‘lgan.

6:6 *Yusuf nasli* — 5:6 izohiga qarang.

6:8 *Yoqub nasli* — 3:13 izohiga qarang.

6:8 *dushman* — 3:11 izohiga qarang.

6:10 *Jim!* — mazkur parchada tasvirlangan dahshatli jazodan keyin odamlar Xudoning nomini hatto tilga olishga ham qo‘rqadigan bo‘lib qoladilar. Xudoning nomini tilga olsak, boshimizga yanada ko‘proq jazo keladi, degan fikr o‘sha qo‘rquvning sababi bo‘lishi mumkin. Yana Zafaniyo 1:7 ga qarang.

6:12 *Dengiz* — yoki *O‘sha yer*.

6:13 *Lo‘davor shahri* — ibroniychadagi *hech narsa* so‘ziga ohangdosh. Bu shahar Iordan daryosining sharq tomonida joylashgan.

6:13 *Karnayim shahri* — ibroniychadagi ma’nosi *ikki shox*. Buqaning shoxlari harbiy kuchning ramzi edi. Karnayim shahri Iordan daryosining sharq tomonida joylashgan.

6:14 *Levo–Xomat* — yoki *Xomat dovoni*.

6:14 *Arabadagi soylikkacha* — Araba umumiy geografik nom bo‘lib, bu oyatda O‘lik dengizning janub tomoniga nisbatan ishlatilgan. Bu o‘rinda tilga olingan soylik O‘lik dengizning janubiy qirg‘og‘idagi Zarad soyligi bo‘lsa kerak. O‘sha paytda bu soylik O‘lik dengizning sharq tomonidagi Isroilning eng janubiy chegarasi bo‘lgan.

7:1 *…ikkinchi ekinlar unib chiqa boshlabdi* — ikkinchi hosil bahorgi yomg‘irlardan keyin unib chiqardi. Shundan keyin qurg‘oqchilik boshlanib, hech narsa o‘smas edi. Ikkinchi ekinlarni chigirtkalar nobud qilishi oqibatida og‘ir qahatchilik yuz berishi muqarrar edi.

7:1 *chigirtkalar* — 4:9 izohiga qarang.

7:2 *Yoqub nasli* — 3:13 izohiga qarang.

7:4 *…olov bilan…* — Qonunlar 32:22 ga qarang.

7:4 *buyuk dengiz* — qadimda Isroil xalqining tasavvuriga ko‘ra, yer tep–tekis bo‘lib, yer ostida buyuk dengiz bor edi, dengiz tubida o‘rnatilgan ulkan ustunlar yerni ushlab turardi. Bu ustunlar dengiz tubidagi poydevorga tayanardi (Zabur 17:16 ga qarang).

7:7 *shoqul* — binokorlikda devor, ustun va shu kabilarning vertikal holatini aniqlash uchun ishlatiladigan, bir uchiga og‘irlik bog‘langan ipdan iborat asbob.

7:9 *Is’hoq nasli* — Isroil, ya’ni shimoliy shohlik aholisi nazarda tutilgan. Xudo Is’hoq o‘g‘li Yoqubning ismini o‘zgartirib, unga Isroil deb nom bergan edi.

7:9 *sajdagoh* — ibroniycha matnda *bamax*, ya’ni “tepalik”. Kan’on xudolariga topinadigan joylar *bamax* deb atalardi. Odatda bu sajdagohlar tepaliklarda joylashgan bo‘lib, u yerda Kan’on xudolarining tasvirlari va qurbonliklar keltirish uchun qurbongoh

bo‘lardi.

7:9 *Yorubom* — 1:1 ga va o‘sha oyatning oxirgi izohiga qarang.

7:9 *…Yorubom xonadoniga qilich bilan hujum qilaman* — Yorubomning o‘g‘li Zakariyo o‘ldirilganiga ishora (4 Shohlar 15:8-10 ga qarang).

7:10 *Baytil* — 3:14 ning birinchi izohiga qarang.

7:14 *shikamora–anjir daraxtlari* — anjirning qadimgi Yaqin Sharqda keng tarqalgan bir turi. Kattaligi yong‘oq daraxtiday, barglari esa tut barglariga o‘xshash bo‘lib, yil davomida bir necha bor hosil beradigan sersoya daraxt.

7:16 *Is’hoq xonadoni* — shu bobning 9–oyatiga qarang.

8:5 *…Yangi oy shodiyonasi…Shabbat kuni…* — Xudoga bag‘ishlangan alohida bir kunlar. Tavrotga ko‘ra, bu kunlarda ishlash man etilgan. Ular mana shu diniy kunlarga chiqarilgan qoidalarga rioya qilardilar, ammo ishlashga ruxsat beriladigan kunlarda esa odamlarni aldab, firibgarlik qilardilar. Shunday qilib ularning ikkiyuzlamachiligi aniq ko‘rinib turardi.

8:7 *Yoqub naslining takabburligini ko‘rib, Egamiz shunday deb ont ichdi…* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *Yoqubning faxri haqi Egamiz shunday deb ont ichdi…*. Qadimgi Isroilda odamlar ont ichganlarida qadrli yoki o‘zgarmas narsalar nomini o‘rtaga qo‘yib qasam ichardilar. Bu o‘rinda *Yoqubning faxri* iborasi Xudoning unvoni bo‘lib, Xudo shu unvonni o‘rtaga qo‘yib qasam ichyapti, deb tushunsa bo‘ladi. Yoki bu ibora Isroil yurtini bildirib, Xudo Isroil yurtini o‘rtaga qo‘yib qasam ichyapti, deb tushunsa ham bo‘ladi, chunki bu yurt Isroil xalqining qadrli mulki edi. Ammo bu o‘rinda Amos kinoya qilib, Xudo Isroilning o‘zgarmas takabburligi bilan qasam ichyapti, deb aytayotganining ehtimoli ko‘proq (6:1-8 ga qarang).

8:8 *…Nil suvlariday ko‘tarilib, pastga tushadi* — har yilgi yomg‘ir mavsumida Nil daryosi suvlari ba’zan 8 metrgacha ko‘tarilgan. Buning oqibatida Misrning daryo bo‘yidagi joylarini suv bosgan. Amos oldini olib bo‘lmaydigan bu tabiiy hodisani majoziy ma’noda ishlatib, Xudo Isroil xalqining boshiga keltiradigan jazoga ishora qilgan (yana 9:5-6 ga qarang).

8:10 *…qayg‘udan qanorga o‘ranasiz, Aza tutganingizdan sochingizni qirdirasiz* — qanor dag‘al qoramtir mato bo‘lib, echki yoki tuya junidan to‘qilgan. Qanorga o‘ranib olish va sochni qirish umidsizlikni va qayg‘uli holatni ifodalaydi.

8:14 *Samariyaning sharmanda ma’budasi* — Isroilning, ya’ni shimoliy shohlikning poytaxti Samariyada odamlar sajda qilgan butlar — Baal va Ashera nazarda tutilgan.

8:14 *Dan shahri* — Isroilning shimolida joylashgan bo‘lib, butparastlik o‘chog‘i edi (3 Shohlar 12:28-33, 4 Shohlar 10:29 ga qarang).

8:14 *Bersheba* — 5:5 ning oxirgi izohiga qarang.

9:1 *qurbongoh* — Baytil sajdagohidagi qurbongoh nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin (7:13 ga qarang).

9:2 *o‘liklar diyori* — ibroniycha matnda *Sheo‘l*. Qadimda Isroil xalqi *Sheo‘l*ni yer ostidagi tubsiz chuqurlik, marhumlar boradigan qorong‘i joy deb tushunardi.

9:5 *…Nil suvlariday Baland ko‘tarilib, pastga tushadi* — 8:8 izohiga qarang.

9:6 *osmon gumbazi* — qadimda Isroil xalqining tasavvuriga koʻra, osmon gumbazga oʻxshaydi va yer ostidagi tubsizlikning poydevoriga oʻrnatilgan ulkan ustunlarga tayanadi.

9:7 *Habashistonliklar* — ibroniycha matnda *Kushliklar*. Kush degan joy Misrdan janubda boʻlib, hozirgi Sudan va Efiopiya mamlakatlarining bir qismini oʻz ichiga olgan edi. Bu joylar Quddusdan uzoqda boʻlgani bois, Isroil xalqi ularni Xudo uchun ahamiyatsiz deb bilgan.

9:7 *Xafto'r* — Krit nomi bilan ham ma'lum. Filist xalqining ajdodlari Krit orolidan kelgan edilar. Filist xalqi Isroilning dushmani boʻlib, gʻarbda istiqomat qilgan.

9:7 *Xir* — qayerda joylashgani aniq ma'lum emas. Oram xalqi Isroilning dushmani boʻlib, shimoli–sharq tomonda istiqomat qilgan.

9:8 *Yoqub nasli* — 3:13 izohiga qarang.

9:14 *Men xalqimni yana farovonlikka erishtiraman* — yoki *Men xalqimni asirlikdan ozod qilib, ona yurtiga qaytarib olib kelaman*.

OBODIYO

PAYG‘AMBARNING KITOBI

Kirish

Mazkur kitob muallifi Obodiyo payg‘ambar Edom yurti haqida bashorat qiladi. Edom xalqi muttasil tarzda Xudoning tanlangan xalqiga dushmanlik qilib kelgani uchun, Obodiyo Edom yurtining batamom vayron bo‘lishini e’lon qiladi. Mazkur kitob Muqaddas Kitob tarkibidagi eng qisqasi bo‘lishiga qaramay, Xudoning ayovsiz hukmidan xabar beradi.

Bobilliklar miloddan oldingi 605-586 yillar mobaynida Quddusga bir necha marta hujum qilib, shaharni zabt etishadi. Ular Yahudo xalqini Bobilga surgun qilishadi. Obodiyo payg‘ambar ushbu kitobini o‘sha mudhish davrda, ilk surgun yillarida yozadi. O‘lik dengizning janubidagi tog‘li hududda yashagan Edom xalqi Quddus qulaganidan sevinadi. Yahudo xalqining boshiga tushgan bu falokatdan ular nafaqat xursand bo‘lishadi, balki shaharni talashadi, bosqinchilarga yordam berishadi. Xudo Edom xalqini shu qilmishi uchun jazolaydi, ular qatorida boshqa xalqlarni ham hukm qiladi.

Obodiyo bu xabarni Yahudo xalqining kelajakdagi g‘alabalari bilan yakunlab, asirlikdan qaytib keladigan Xudoning xalqi Edom yurtiga hukmronlik qilishini aytadi.

Obodiyo kitobi juda qisqa bo‘lgani uchun boblarga bo‘linmagan.

1–BOB

1 Quyidagilar Obodiyoning bashoratidir.

Egamiz Edom xalqini jazolaydi

Egamiz barcha xalqlarga jarchi yubordi,
Bizga shunday xabar yetib keldi:
“Tayyorlaninglar! Qani, kelinglar,
Edomga* qarshi urushga boraylik!”

Edom xalqi haqida Egamiz Rabbiy quyidagilarni aytmoqda:

2 “Ey Edom xalqi, xalqlarning orasida
Men eng arzimasi qilib qo‘yaman sizni,
Hamma sizlardan nafratlanadi.
3 Takabburligingiz sizlarni aldadi.
Qoyadagi* qo‘rg‘ondir poytaxtingiz,
Baland tepalikdadir uylaringiz,
Shuning uchun aytasiz o‘zingizcha:
«Kim bizlarni tushira olar yerga?!»
4 Burgutday baland parvoz qilsangiz ham,
Iningiz yulduzlar orasida bo‘lsa ham,
Sizlarni u yerdan tortib tushiraman,

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

— deb aytmoqda Egamiz. —

5 Uyingizga o‘g‘ri tushsa,
Kechasi bosqinchilar kelsa,
Faqat xohlagan narsasini oladi–ku!
Bog‘ingizda uzum tergan odamlar
Bir–ikki bosh bo‘lsa–da, uzum qoldiradi–ku!
Dushmanlaringiz esa sizni tamoman yo‘q qiladi!
6 Ey Esovning avlodi* — Edom,
Yovlar hamma narsangizni talon–taroj qilishar,
Qadrli buyumlaringizni topib, tortib olishar.
7 Barcha ittifoqchilaringiz sizga qarshi chiqib,
Sizni o‘z yurtingizdan haydab yuborar.
Tinchlik va’da qilib aldaydi ular,
Ammo sizlarni mag‘lub qilarlar.
Sizlarga tuzoq qo‘yar noningizni yeganlar.
Sizlar esa buni bilmay qolasizlar.”

8 Egamiz shunday aytmoqda:
“Ey Edom xalqi, hukm qilinadigan kunda,
Men donishmandlaringni halok qilarman,
Esov tog‘idagi* aql–idroklilarin yo‘q qilarman.
9 Ey Temon shahri*, jangchilaring dahshatga tushar,
Esov tog‘idagi har bir inson yo‘q qilinar.

Edom xalqining jazolanishi sabablari

10 Sizlar qondoshingiz Yoqub avlodiga* zulm qilib,
Ularni o‘ldirdingiz.
Shu bois to abad sharmanda bo‘lib,
Butunlay halok bo‘lasiz.
11 Ularning boyliklarin begonalar olib ketgan kun
Sizlar bir chetda qarab turdingiz.
Yot xalqlar Quddus shahriga kirib*,
Shahar uchun qur’a tashlaganlarida,
Sizlar ham ular kabi yovuz ishlar qildingiz.
12 Qondoshlaringizga kelgan baxtsizlikni ko‘rib,
Xushnud bo‘lmasligingiz kerak edi.
Yahudo xalqi* xarob bo‘lgan kun
Sevinmasligingiz kerak edi.
Boshlariga tushgan kulfatni ko‘rib,
Mazax qilmasligingiz kerak edi.
13 Mening xalqimga falokat kelgan kuni
Shahar darvozalaridan kirmasligingiz kerak edi.
Yahudo xalqining boshiga falokat tushgan kuni,
Xushnud bo‘lganlarga qo‘shilmasligingiz kerak edi.
Ularning boshiga falokat tushgan kuni,

Buyumlarini o‘ljaga olmasligingiz kerak edi.
14 Qochib ketayotganlarni kutib chorrahalarda,
Pistirmalar qo‘ymasligingiz kerak edi.
O‘sha kulfat kuni tirik qolganlarni
Dushman qo‘liga bermasligingiz kerak edi.

Egamiz barcha xalqlarni jazolaydi

15 Men, Egangiz, barcha xalqlarni hukm qiladigan kun* yaqinlashib qoldi.
Ey Edom xalqi! Nima qilgan bo‘lsangiz boshqalarga,
O‘zingiz ham tusharsiz o‘sha ko‘yga,
Qilmishlaringiz qaytar o‘z boshingizga.

16 Ey Yahudo xalqi*, muqaddas tog‘imda*
G‘azab sharobin* ichib bo‘ldingiz.
Shu singari, barcha xalqlar ham
Bu sharobdan to‘xtamasdan icharlar.
Hech qachon yer yuziga kelmagan kabi,
Ichib–ichib, yo‘q bo‘lib ketarlar.

Isroil g‘alaba qiladi

17 Lekin Sion tog‘ida najot toparlar
Isroil xalqining* omon qolganlari.
Bu tog‘ muqaddas bo‘lar.
Yoqub nasli haydab chiqarar yovlarini,
Uning mulkini tortib olganlarni
Va yana egallar o‘z yerlarini.
18 Yoqub avlodi bo‘lar olovday,
Yusufning avlodi* bir alangaday.
Esovning avlodi esa
Bo‘lib qolar quruq poyaday.
Mening xalqim Isroil
Esovning avlodini yondirar,
Yondirib, ularni yo‘q qilar.
Esov avlodidan tirik qolmas hech biri.”
Zotan, bu so‘zlarni Egamiz aytdi.

19 Isroil xalqining Nagav cho‘lida yashaydiganlari Esov tog‘ini egallab oladilar*, Yahudo qir etaklarida* yashaydiganlari esa Filistlarning yerlariga* egalik qiladilar. Isroil xalqi Efrayim yerlarini va Samariya shahrini qo‘lga kiritadi, Benyamin avlodi esa Giladga* egalik qiladi. 20 Shimoliy Isroildan asirlikka olib ketilganlar* qaytib keladi. Ular shimoldagi Zorafat shahrigacha* bo‘lgan Finikiya yerlarini oladilar. Quddusdan Safaradga* asirlikka olib ketilganlar* esa Nagav cho‘lidagi shaharlarni qo‘lga kiritadilar.
21 G‘oliblar Sion tog‘iga chiqadilar. O‘sha yerda turib, Esov tog‘i ustidan hukmronlik qiladilar. Egamizning O‘zi Shoh bo‘ladi.

IZOHLAR

1:1 *Edom* — bu yurt O‘lik dengizning janubida joylashgan edi. Edom xalqi azaldan Isroil xalqining dushmani bo‘lib kelgan edi. Bobilliklar Quddusni vayron qilganlarida, ular Bobilliklarga yordam bergan edilar (Zabur 136:7, Hizqiyol 35:5 ga qarang). To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi EDOM so‘ziga qarang.

1:3 *Qoya* — ibroniycha matnda bu so‘z Edom yurtining poytaxti bo‘lgan *Sela* nomiga ohangdosh. Sela shahri baland, yassi tog‘da joylashgan edi.

1:6 *Esovning avlodi* — shu kitobning 10–oyati izohiga qarang.

1:8 *Esov tog‘i* — Edom yurtiga nisbatan qo‘llangan she’riy usul. Bu yurt tog‘li yurt edi (yana shu kitobning 6–oyatiga va o‘sha oyatning izohiga qarang).

1:9 *Temon shahri* — Edom yurtining shimoliy qismidagi muhim shahar.

1:10 *qondoshingiz Yoqub avlodi* — Isroil xalqi Yoqubdan, Edom xalqi esa Yoqubning akasi Esovdan kelib chiqqan edi.

1:11 *Yot xalqlar Quddus shahriga kirib…* — miloddan oldingi 586 yilda Bobil shohi Navuxadnazar Quddusni vayron qilib, aholining asosiy qismini Bobilga surgun qilgan edi (4 Shohlar 25:1-21 ga qarang).

1:12 *Yahudo xalqi* — janubiy shohlik nazarda tutilgan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi YAHUDO so‘ziga qarang.

1:15 *Men…barcha xalqlarni hukm qiladigan kun…* — Eski Ahddagi payg‘ambarlar bitiklarida bu kun haqida bir necha marta so‘z yuritilgan. Ko‘pincha bu ibora Xudo beradigan jazoga ishora qiladi. Bu ibora yana qiyomat kunidagi Xudoning hukmiga nisbatan ham ishlatiladi. O‘sha kuni Xudo O‘z dushmanlari ustidan g‘alaba qozonadi va ularni jazolaydi, O‘ziga sodiq qolganlarga esa orom bag‘ishlaydi, ularga tinchlik va qut–barakalar ato qiladi.

1:16 *Ey Yahudo xalqi…* — ibroniycha matnda *Sizlar…*. Sharob ichish odatda Xudo hukmining ramzi sifatida ishlatilgani bois, bu o‘rinda Obodiyo Yahudo xalqini nazarda tutgan bo‘lsa kerak (Ishayo 51:17-23 ga qarang). Bordi–yu, muallif Edom xalqini nazarda tutgan bo‘lsa, sharob ichishni ikki ma’noda talqin qilish mumkin. Birinchisi — Edom xalqi Quddusning qulashini bayram qilganini ko‘rsatadi (shu kitobning 11-12–oyatlariga qarang). Ikkinchisi — Xudo Edom xalqini va boshqa xalqlarni hukm qilishini ko‘rsatadi (Yeremiyo 25:17-29 ga qarang).

1:16 *muqaddas tog‘im* — Quddusdagi Sion tog‘iga ishora. Quddusdagi Ma’bad qurilgan tepalik Sion tog‘i deb atalgan. Eski Ahddagi she’riy parchalarda va payg‘ambarlar bitiklarida Sion so‘zi ko‘pincha Quddus shahriga yoki Xudoning xalqiga nisbatan ishlatilgan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi SION so‘ziga qarang.

1:16 *G‘azab sharobi* — Xudo g‘azabining ramzi bo‘lgan sharob kosasiga ishora. Mana shu sharobdan mast bo‘lish Xudoning hukmiga duchor bo‘lishni bildiradi.

1:17 *Isroil xalqi* — bu o‘rinda Obodiyo Xudoning xalqiga tegishli bo‘lgan, qayta tiklangan va birlashgan janubiy va shimoliy shohliklarga ishora qilyapti (bu oyatda Yoqub nasli iborasi ostida Xudoning xalqi nazarda tutilgan). Hizqiyol 37:15-28 ga qarang.

1:18 *Yoqub avlodi…Yusufning avlodi…* — Isroil xalqiga ishora. Shu kitobning 17–oyati izohiga qarang.

1:19 *…egallab oladilar…* — shu kitobning 19-21–oyatlarida Isroil xalqi oʻz yurtini qayta egallashi va uni kengaytirishi haqida soʻz yuritilgan. Qonunlar 30:1-5 ga qarang.

1:19 *…Nagav choʻli…Yahudo qir etaklari…* — Nagav choʻli hozirgi Isroilning janubida, ya'ni Oʻlik dengizning janubi–gʻarbida, Yahudo qirlari esa Yahudo yurtining gʻarbida joylashgan edi.

1:19 *Filistlarning yerlari* — Isroil yurtidan gʻarbda, Oʻrta yer dengizi boʻyida joylashgan.

1:19 *Gilad* — Iordan daryosining sharq tomonidagi oʻlka.

1:20 *Shimoliy Isroildan asirlikka olib ketilganlar…* — miloddan oldingi 722 yilda Ossuriya shohi Shalmanasar Isroilga, ya'ni shimoliy shohlikka hujum qilib, poytaxti Samariyani zabt etdi. Soʻng Isroil xalqining aksariyat qismini Ossuriyaga surgun qildi (4 Shohlar 17:1-6 ga qarang).

1:20 *Zorafat shahri* — Finikiyaga qarashli shahar boʻlib, Oʻrta yer dengizi boʻyida, Sidondan qariyb 15 kilometr janubda joylashgan edi.

1:20 *Safarad* — bu nom Sardisga nisbatan ishlatilayotgan boʻlishi mumkin. Sardis hozirgi Turkiyaning gʻarbida joylashgan edi.

1:20 *Quddusdan…asirlikka olib ketilganlar…* — shu kitobning 11–oyati izohiga qarang.

YUNUS

PAYG‘AMBARNING KITOBI

Kirish

Mazkur kitob Yunus payg‘ambarning nomi bilan atalgan. Yunus payg‘ambar Amos va Xo‘sheya payg‘ambarlarning zamondoshi bo‘lib, taxminan miloddan oldingi 800-750 yillarda — Isroil xalqi Ossuriyaga surgun qilinishidan oldin faoliyat ko‘rsatgan.

Yunus kitobi boshqa payg‘ambarlarning kitoblaridan farq qiladi. Farqi shundaki, kitobda Yunus payg‘ambarning Xudodan qochib yurgani bayon qilinadi. Xudo Yunusni yo‘q qilinishga mahkum etilgan Naynavo shahriga* aholisini tavbaga chaqirish uchun yuboradi. Ammo Yunus u yerga borishdan bosh tortib, Xudoga itoatsizlik qiladi. Yunus hatto shaharning vayron bo‘lishini istaydi. Chunki Naynavo Isroilning ashaddiy dushmani Ossuriyaning poytaxti edi. Lekin Xudo Yunusni to‘g‘ri yo‘lga soladi. Shundan keyin Yunus Naynavoga borib, Egamizning amrini bajaradi.

Ko‘pchilik Yunus kitobini o‘qiganda, e’tiborini asosan bahaybat baliq Yunusni yutib yuborganiga qaratadi. Lekin bu kitobning vazifasi Egamiz hamma xalqlarga shafqatli va mehribon ekanini ko‘rsatishdan iborat.

1–BOB

Yunus Egamizga itoat etmadi

1 Bir kuni Amitay o‘g‘li Yunusga Egamiz shu so‘zlarni ayon qildi: 2 “Qani, bo‘l, qudratli
Naynavo shahriga* bor. Jar solib, u yerdagilarni ogohlantir, chunki shahar ahli qilgan
qabihliklar Menga yetib keldi.”
3 Yunus yo‘lga tushdi, lekin Egamizdan qochib boshqa tomonga ketmoqchi bo‘ldi. U
Yaffaga* kelib, u yerda Tarshishga* boradigan kemani topdi. Yo‘l haqini to‘ladi–da,
Egamizdan qochib Tarshishga suzib ketgani kemachilar bilan kemaga chiqdi.
4 Ammo Egamiz shunday kuchli shamol qo‘zg‘atdiki, dengizda dahshatli bo‘ron
boshlandi. Bo‘ron kemani parchalab yuboray derdi. 5 Bundan kemachilar vahimaga
tushib, har biri o‘z xudosiga yolvordi. Keyin, kema yengillashsin deb, u yerdagi yuklarni
dengizga uloqtira boshladilar. Yunus esa kemaning ichkarisiga kirib, qattiq uyquga
ketgan edi. 6 Bir payt kema darg‘asi Yunusning yoniga kelib: “Nega sen uxlab yotibsan?
Tur, xudoyingga yolvor! Balki u bizlarni eslasa, halok bo‘lmasmiz”, dedi.
7 Kemadagilar esa bir–birlariga: “Kelinglar, qur’a tashlaylik*, shunda bu falokat kim
sababli boshimizga kelganini bilamiz”, dedilar. Qur’a tashlagan edilar, qur’a Yunusga
tushdi.
8 Keyin Yunusdan so‘radilar: “Bizga ayt–chi, nima sababdan boshimizga bu falokat
tushdi? Sen kimsan? Qayerdan kelyapsan? Qaysi yurtdansan? Qanaqa xalqdansan?”
9 Yunus ularga shunday javob berdi: “Men ibroniyman, dengiz va quruqlikni
yaratgan Samoviy Xudo — Egamga sig‘inaman.”
10 Ular Yunusning Egamizdan qochib ketayotganini bilardilar. Chunki Yunusning o‘zi
bu haqda ularga aytgan edi. Ular bu gapni eshitib, yana ham qattiqroq dahshatga

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

tushdilar va unga: “Nega bunday qilding–a?!” dedilar.
11 Kemadagilar Yunusga: “Dengiz tinchlanishi uchun seni nima qilsak ekan–a?” deb
so‘radilar. Chunki dengiz yanada vahima bilan to‘lqinlanardi.
12 Shunda Yunus kemadagilarga dedi: “Meni olib, dengizga uloqtirsangizlar, dengiz
tinchlanadi. Bilaman, bu kuchli bo‘ron men tufayli boshlaringizga kelgan.”
13 Kemadagilar esa kemani quruqlikka olib bormoqchi bo‘lib rosa eshkak eshdilar,
ammo bunga muvaffaq bo‘la olmadilar, chunki dengiz ularga qarshi battar quturayotgan
edi. 14 Shunda ular Egamizga yolvordilar: “Ey Egamiz! Sen O‘zingga ma’qul bo‘lganini
qilib, bizni shu ahvolga solding. Ey Egamiz! Senga iltijo qilamiz: shu odamning joni
uchun bizlarni halok qilma, begunoh odamning o‘limiga bizlarni javobgar qilma.”
15 Shundan keyin Yunusni olib dengizga uloqtirgan edilar, dengiz tinchlanib qoldi.
16 Bu voqeani odamlar ko‘rgach, Egamizdan qattiq qo‘rqdilar. Unga qurbonlik qilib, nazr
atadilar.

2–BOB

Yunus baliq qornida ibodat qiladi

1 Yunusni yutsin deb, Egamiz nahang baliqni yubordi. Yunus uch kechayu uch
kunduz baliq qornida qoldi.
2 Yunus baliqning qornida ekan, o‘zining Egasi Xudoga shunday deb ibodat qildi:

3 “Ey Egam, qayg‘uli damlarimda
Senga qildim iltijo,
Iltijolarimni Sen eshitding.
O‘liklar diyorining* qa’ridan faryod ko‘tardim,
Sen eshitding ovozlarimni.
4 Meni otganding tubsiz chuqurga,
Dengiz bag‘riga,
Meni qurshab olgandi suvning girdobi.
Sening to‘lqinlaring
O‘tgandilar ustimdan bosib.
5 Sening huzuringdan quvilganman,
Dedim o‘shanda,
Lekin muqaddas Ma’badingni
Yana ko‘raman!
6 Suvlar meni bo‘g‘zimgacha ko‘mgandi,
Tubsiz dengiz atrofimni o‘radi.
Dengiz o‘tlari boshimga o‘ralib qoldi.
7 Tog‘larning tubiga* cho‘kkandim —
Zanjirlari bilan to abad menga to‘siq qo‘ygan joyga*.
Sen esa, ey Egam Xudo,
Jonimni o‘sha joydan qutqarding!
8 Ey Egam, hayotim onlari tugay deganda,
Men Seni esladim.
Iltijolarim Sengacha,

Muqaddas Ma’badinggacha yetib bordi.
9 Soxta, bema’ni butlarga sig‘inadiganlar
Senga bo‘lgan sadoqatidan voz kechdilar!
10 Men esa shukrona aytib,
Senga qurbonlik keltiraman.
Atagan nazrlarimni ado etaman.
Ey Egam, najot faqat Sendandir!”

11 Egamiz shundan keyin nahang baliqqa amr bergan edi, nahang baliq Yunusni quruqlikka chiqarib qo‘ydi.

3–BOB

Yunus Naynavo aholisini tavbaga chaqiradi

1 Yunusga Egamiz ikkinchi marta shu so‘zlarni ayon qildi: 2 “Qani, bo‘l, qudratli Naynavo shahriga* borib, Mening so‘zlarimni jar solib u yerdagilarga e’lon qil.”
3 Yunus Egamizning amriga bo‘ysunib, Naynavo tomonga ketdi. Naynavo juda katta shahar bo‘lib, uni aylanib chiqishga uch kun vaqt ketardi. 4 Yunus shahar bo‘ylab bir kun yo‘l yurib o‘tdi. U aylanib yurib: “Yana qirq kundan keyin Naynavo xarob bo‘ladi”, deb jar soldi.
5 Naynavoliklar Xudoga ishonib, ro‘za tutamiz, deb e’lon qildilar. Shahardagi kattayu kichik tavba qilib qanorga o‘randi*.
6 Bu xabar Naynavo shohiga ham yetib bordi. U taxtdan tushib, shohona liboslarini yechdi, qanorga o‘ranib, kulga o‘tirdi. 7 O‘zi va amaldorlari nomidan butun Naynavo bo‘ylab quyidagi farmonni e’lon qildi: “Na insonlar, na hayvonlar — mol–qo‘ylar hech narsa yemasin, suv ichmasin. 8 Insonlar ham, hayvonlar ham qanorga o‘ransin. Har kim Xudoga yalinib iltijo qilsin, yovuz qilmishidan qaytsin, zulm qilmasin. 9 Kim biladi, balki Xudo rahm qilib, bizga bo‘lgan g‘azabini qaytarar, biz halok bo‘lmasmiz.”
10 Xudo ularning qilgan ishlarini, yovuz qilmishlaridan qaytganini ko‘rib, rahm qildi va ularning ustiga “yuboraman”, deb aytgan ofatni yubormadi.

4–BOB

Yunusning g‘azabi va Xudoning shafqati

1 Bu voqeadan Yunus qattiq xafa bo‘lib g‘azablandi. 2 U Egamizga ibodat qilib dedi: “Ey Egam! Shunaqa qilishingni o‘z yurtimda ekanimdayoq aytmaganmidim?! Shuning uchun men Tarshishga qochgan edim–da. Sen inoyatli, rahmdil, jahli tez chiqmaydigan, sodiq sevgisi mo‘l, g‘azabidan tushib kechiradigan Xudo ekanligingni bilgan edim. 3 Endi, iltijo qilaman, Egam, jonimni olib qo‘ya qol. Yashaganimdan ko‘ra, o‘lganim yaxshiroq.”
4 Egamiz esa: “Nahotki shundan sen xafa bo‘lding?!” dedi.
5 Yunus shahardan chiqib, shaharning sharq tomoniga borib o‘tirdi. Shu yerda chayla yasab, endi shaharga nima bo‘larkin, deb chaylaning soyasida kutib o‘tirdi.
6 Bir payt, Yunusning boshiga soya bo‘lsin, qayg‘usi barham topsin deb, Parvardigor Egamiz bir o‘simlik o‘stirdi. O‘simlik Yunusning tepasida ko‘tarildi. Yunus bu o‘simlik o‘sganidan juda xursand bo‘ldi. 7 Keyingi kuni esa tong paytida Xudo bir qurtni yuborgan

edi, qurt oʻsimlikni kemirib quritdi. 8 Quyosh yuqoriga koʻtarilganda, Xudo sharqdan garmsel* yubordi. Quyosh Yunusning boshini shunday qizdirdiki, u holdan keta boshladi. Yunus: “Bunaqa yashaganimdan, oʻlganim yaxshiroq”, deb oʻziga oʻlim tiladi*.

9 Xudo Yunusga:

— Bitta oʻsimlik nobud boʻlganidan jahling chiqdimi? — dedi.

— Ha, jahlim chiqdi, oʻlimimga ham rozi boʻldim, — deb javob berdi Yunus.

10 Shunda Egamiz aytdi:

— Bu oʻsimlik uchun sen mehnat qilmagansan, ekib–oʻstirmagansan, oʻzi bir kechada oʻsib, bir kechada yoʻq boʻldi. Sen shu oʻsimlik uchun achinganingda, 11 Men qudratli Naynavo shahriga* achinmasligim kerakmi?! Axir, bu yerda oq–qorani ajrata olmaydigan bolalarning oʻzidan yuz yigirma mingdan ortigʻi va talay hayvonlar yashaydi–ku!

IZOHLAR

Naynavo shahri — Nineviya nomi bilan ham ma’lum.

1:2 *Naynavo shahri* — Ossuriya shohligining poytaxti bo‘lib, Dajla daryosining sharqiy qirg‘og‘ida joylashgan edi. Bu shahar Nineviya nomi bilan ham ma’lum. Ossuriya Isroilga ashaddiy dushman edi.

1:3 *Yaffa* — O‘rta yer dengizi bo‘yida joylashgan bo‘lib, Quddus uchun bandargoh vazifasini o‘tagan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi BANDARGOH so‘ziga qarang.

1:3 *Tarshish* — hozirgi Ispaniyaning hududida joylashgan bandargoh shahar bo‘lib, Naynavodan juda uzoqda, tamomila teskari tomonda edi.

1:7 *...qur’a tashlaylik...* — qur’a tashlashda yog‘och bo‘laklari yoki toshlar ishlatilgan bo‘lib, shu orqali biror ishni qanday yoki qachon qilish kerakligi aniqlangan. Bu vaziyatda qur’a orqali aybdor kim ekanligi ma’lum bo‘lgan.

2:3 *O‘liklar diyori* — ibroniycha matnda *Sheo‘l*. Qadimda Isroil xalqi *Sheo‘l*ni yer ostidagi tubsiz chuqurlik, marhumlar boradigan qorong‘i joy deb tushunardi.

2:7 *Tog‘larning tubiga...* — qadimda odamlar, tog‘larning poydevori yer ostidagi ulkan dengiz tubiga tayanadi, degan tasavvurga ega edi.

2:7 *...Zanjirlari bilan to abad menga to‘siq qo‘ygan joyga — Sheo‘l*, ya’ni o‘liklar diyori nazarda tutilgan. Shu bobning 3–oyati izohiga qarang.

3:2 *Naynavo shahri* — 1:2 izohiga qarang.

3:5 *...qanorga o‘randi* — qanor dag‘al qoramtir mato bo‘lib, echki yoki tuya junidan to‘qilgan. Qanorga o‘ranib olish va kulga o‘tirish (shu bobning 6–oyatiga qarang) umidsizlikni va qayg‘uli holatni ifodalaydi. Ko‘pincha bu harakat Xudodan kechirim so‘rab ibodat qilish va Undan madad tilash bilan birgalikda amalga oshirilgan.

4:8 *garmsel* — issiq shamol.

4:8 *...o‘ziga o‘lim tiladi* — yoki *...Xudodan o‘lim so‘radi*.

4:11 *Naynavo shahri* — 1:2 izohiga qarang.

MIXO

PAYG‘AMBARNING KITOBI

Kirish

Mixo payg‘ambar Yahudo yurtidagi kichkina bir qishloqda tug‘ilgan. U Ishayo payg‘ambarning zamondoshi bo‘lib, miloddan oldingi 722 yilda Isroil* xalqi Ossuriyaga surgun qilinishidan oldin faoliyat ko‘rsatgan.

Mixo payg‘ambar Isroilning poytaxti Samariya haqida va Yahudoning poytaxti Quddus haqida bashorat qiladi. Ikkala poytaxtning amaldorlari va boylari butun xalqni yo‘ldan ozdirib, butlarga sajda qilishni o‘rgatishadi. Bundan tashqari, firibgarlik qilib, kambag‘allarni talon–taroj qilishadi. Shu sabablarga ko‘ra, Isroil va Yahudo xalqlarini Xudo jazolamoqchi bo‘ladi. Mixo payg‘ambar Isroil va Yahudo xalqlarining boshiga tushadigan musibatlar va tutqunlik azoblari haqida bashorat qiladi.

Ammo kelajakda Isroil va Yahudo xalqlari yana haq Xudoga sajda qilishadi. Shunda Xudo ularni o‘z yurtiga qaytarib olib keladi, g‘alabalar sari yetaklaydigan haqiqiy hukmdorni ularga taqdim qiladi. O‘sha vaqt kelganda, hamma joyda osoyishtalik qaror topadi. Xudo O‘zi tanlagan hukmdor bilan birgalikda xalqqa cho‘ponlik qiladi. Isroilni boshqaradigan bu zot Baytlahm shahrida tavallud topishi haqidagi bashoratlar ham mazkur kitobdan o‘rin olgan.

1–BOB

1 Yahudo* shohlari Yo‘tom, Oxoz va Hizqiyo hukmronlik qilgan davrlarda* Egamiz Mo‘rashatlik* Mixo payg‘ambarga O‘z so‘zini ayon qilib turdi. Samariya va Quddus* haqida Egamiz aytgan bu so‘zlar Mixo payg‘ambarga vahiy orqali ayon bo‘lardi.

Samariya va Quddus hukm qilinadi

2 Quloq tuting, ey xalqlar!
Quloq soling, yer yuzida yashovchilar!
Egamiz Rabbiy sizlarga qarshi guvohlik beradi.
Muqaddas Ma’badidan Rabbiy gapiradi.
3 Ana, Egamiz O‘z maskanidan chiqyapti,
Tog‘ cho‘qqilarini bosib kelyapti.
4 Uning oyog‘i ostida eriydi tog‘lar,
Yorilib ketadi daralar.
Tog‘lar olovda erigan mum kabi bo‘ladi,
Tepalikdan oqib tushgan suvday to‘kiladi.
5 Yoqub nasli* itoatsizlik qilgani uchun,
Isroil gunohga botib ketgani uchun
Bu voqealar sodir bo‘ladi.
Yoqub nasli orasida itoatsizlik qilgan kim?
Poytaxt shahar Samariya emasmi?!
Butparastlar uyasi* Yahudoning qayerida joylashgan?

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

Quddusning naq o‘zida emasmi?!

6 Egamiz shunday deydi:
“Men Samariyani vayron qilaman.
Uni tok ekiladigan joyga aylantiraman.
Shahar devorlarini yiqitaman,
Devor toshlarini vodiyga yumalataman.
Uning poydevorlarini ochib tashlayman.
7 Samariyaning butlari parcha–parcha bo‘ladi,
Barcha sanamlari sindirib, yondiriladi.
Fahsh yo‘li bilan kelgan butlarning qimmatbaho bezaklari
O‘zga yurt fohishalariga* to‘lov qilib beriladi.”

Mixo payg‘ambarning marsiyasi

8 Bunday musibat dastidan yig‘lab, faryod qilaman,
Yalang‘och, oyoq yalang yuraman,
Chiyabo‘riday uvullab, fig‘on chekaman,
Bo‘ta* kabi bo‘zlab yig‘layman.
9 Axir, davo yo‘q Samariyaning yarasiga,
Yopishdi Yahudoga ham u yara,
Xalqim darvozasi — Quddusga yuqdi.

10 Gat aholisi bilan bu haqda hasratlashmang*,
Ular oldida ko‘z yoshingizni to‘kmang!
Bayt–Lafroga borib,
U yerda qayg‘udan tuproqqa yumalang!*
11 Ey Shofir* ahli,
Siz asirlikka ketasiz,
Yalang‘och, sharmanda bo‘lib borasiz.
Zanon* xalqi tashqariga chiqishga jur’at etmaydi.
Bayt–Ezel* ahli motam tutadi,
Endi ular sizga panoh bo‘lmaydi.
12 Moro‘t* aholisi madad kutgan edi,
Ammo Egamiz falokat yubordi.
Bu falokat hatto Quddus darvozalariga yetdi.
13 Ey Laxish* ahli,
Otlaringizni jang aravalariga qo‘shing!
Siz itoatsiz Isroil xalqiga taqlid qildingiz,
Quddus ahlini* ilk bor gunohga boshladingiz!*
14 Shunday ekan, ey Yahudo xalqi,
Endi Mo‘rashat* bilan xayrlashavering,
Esdalik sovg‘alaringizni ularga taqdim qiling*.
Attang, Axsib* ahli Isroil shohlariga pand berdi,
Bera olmaydigan yordamni ularga va’da qildi.
15 Ey Morisho* ahli,
Egamiz ustingizga bir bosqinchini yuboradi.

Isroil yo‘lboshchilari Adullam g‘origa qochib borishadi.
16 Suyukli farzandlaringiz uchun nola qiling,
Sochingizni qirdiring*.
Kalxatlar kabi siyqa bosh bo‘ling,
Axir, bolalaringiz* surgun qilinadi.

2–BOB

Bechoraholni ezgan zolimlarning qismati

1 Ey to‘shagida yotib, yovuzlikni rejalashtirganlar!*
Sizning holingizga voy!
Tong otganda siz
Rejalaringizni amalga oshirasiz.
Ha, bu sizning qo‘lingizdan keladi.
2 Sizlar birovning ekinzoriga ko‘z olaytirib,
Uni tortib olasiz.
Birovning uyini yoqtirib qolib,
Uni o‘zingizniki qilib olasiz.
Birini o‘z uyidan,
Boshqasini meros qilib olgan yeridan mahrum etasiz.

3 Shu sababdan Egamiz demoqda:
“Men sizlarga qarshi falokatni reja qilyapman.
Sizlar bo‘yinturuqdan qochib qutulolmaysiz,
Burningizni osmonga ko‘tarib yurmaysiz.
Bu og‘ir damlar bo‘ladi.”

4 O‘sha vaqt kelganda, sizlarni masxara qilib,
Odamlar shunday achchiq marsiya kuylashadi:
“Biz merosimizdan mahrum bo‘ldik!
Dalalarimiz dushmanlarga* bo‘lib berildi.
Endi biz butunlay xarob bo‘ldik!”
5 Shunday ekan,
Egamizning xalqi qaytadan bo‘lganda yurtni,
Ulush qilib olmaysiz siz bir parcha yerni.

6 Sizlar menga aql o‘rgatib deyapsiz:
“Bizga aql o‘rgatma!
Nafasingni issiq qil,
Biz sharmanda bo‘lmaymiz.”
7 Ey Yoqub nasli*, sizlar aytasiz:
“Nahotki Egamizning sabri tugagan bo‘lsa?!
Nahotki Xudo shunday ishlarni qilsa?!”
Bu so‘zlarni aytishingiz joizmi?!
Axir, Xudoning so‘zlari to‘g‘ri odamga yaxshilik keltiradi–ku!

8 Egamiz demoqda:
“Sizlar o‘z xalqingizga zulm qildingiz!
Xotirjam yurgan odamning qadamini poyladingiz.
Jangda talafot ko‘rgan odamga o‘xshatib,
Uning egnidagi to‘nini yechib oldingiz.
9 Xalqimning ayollarini shinam uylaridan chiqarib yubordingiz,
Farzandlarining nasibasini Mening yurtimdan uzdingiz*.
10 Qani, turinglar, ketinglar bu yerdan!
Orom topa olmaysiz endi bu yurtda!
Axir, qilgan gunohlaringiz yurtimni harom qildi,
Yurtimning xarob bo‘lishiga sabab bo‘ldi.
11 Bordi–yu, oldingizga yolg‘onchi odam kelsa,
— Sharob, bo‘zadan va’z aytaman, — deb aytsa,
Sizlar uni payg‘ambar deya qabul qilasiz!

Umidbaxsh va’da

12 Ey Yoqub nasli*,
Men sizlarni albatta yig‘aman,
Ey Isroilning omon qolganlari,
Men sizlarni to‘plab olaman.
Qo‘radagi qo‘ylarday, yaylovdagi suruvday,
Sizlarni Men bir joyga yig‘aman.
O‘shanda yurtingiz odamlarga to‘lib–toshadi.
13 Men Yo‘lboshchingiz bo‘lib, sizlarga yo‘l ochaman,
Sizlarni surgundan olib chiqaman.
Sizlar shahar darvozasidan chiqib ketasiz.
Men, Shohingiz sizlarni boshlab boraman.
Men, Egangiz, oldinda yuraman.”

3–BOB

Mixo Isroil yo‘lboshchilariga tanbeh beradi

1 Men shunday dedim:
“Ey Yoqub naslining yo‘lboshchilari, eshiting!
Ey Isroil* hukmdorlari, quloq soling!
Adolat o‘rnatish sizning vazifangiz–ku!
2 Sizlar esa yaxshilikdan nafratlanasiz,
Qabihlikka mehr qo‘yasiz,
Siz xalqimning terisini shilib,
Etini suyagidan ajratib olasiz.
3 Siz xalqimning etini yeysiz,
Terisini shilib, suyaklarini maydalaysiz,
Qozonga solinadigan go‘shtday ularni nimtalaysiz.
4 Vaqti kelib, Egamizga iltijo qilasiz,
O‘shanda Xudodan javob olmaysiz.
Sizlar qabihlarcha ish tutdingiz,

Shu bois U sizlardan yuz o‘giradi.”

5 Egamiz shunday demoqda:
“Ey xalqimni yo‘ldan ozdirgan payg‘ambarlar!
Sizlar qorningizni to‘yg‘izganlarga tinchlikni bashorat qilasiz,
Og‘zingizni moylamaganlarga esa urushni e’lon qilasiz.
6 Endi ustingizga tun bostirib keladi,
Sizlar vahiylarni ko‘rmaysiz.
Qaro zulmat sizni o‘rab oladi,
Bashorat qilishingizga imkon bo‘lmaydi.
Sizlar uchun quyosh botadi,
Kunduz ham zulmat bo‘ladi.
7 Sharmanda bo‘lasiz, ey valiylar,
Uyatga qolasiz, ey folchilar.
Mendan so‘z olmaganingiz uchun
Og‘zingizni ocholmay qolasiz.”

8 Ammo mening vujudim kuchga to‘lgan,
Egamizning Ruhi meni to‘ldirgan.
Qudrat va adolatga to‘lganman.
Endi men Yoqub naslining itoatsizligini fosh qilaman,
Isroil* xalqining gunohini yuziga solaman.
9 Ey Yoqub naslining yo‘lboshchilari, eshiting!
Ey Isroil hukmdorlari, quloq soling!
Sizlar adolatdan hazar qilasiz,
Haqiqatni buzib ko‘rsatasiz.
10 Qonlar evaziga barpo qildingiz Quddusni,
Zulm evaziga bunyod etdingiz Sionni!*
11 Ey Quddus hokimlari, sizlar pora olib hukm qilasiz,
Ey Quddus ruhoniylari, sizlar tama qilib ta’lim berasiz,
Ey Quddus payg‘ambarlari, sizlar pul uchun bashorat qilasiz.
Tag‘in Egamizning nomini ro‘kach qilib, aytasiz:
“Egamiz biz bilan, bunga shubha yo‘q!
Boshimizga biror ko‘rgilik tushmas.”
12 Sizlar sababli
Quddus daladay shudgor qilinadi,
Sion xarobazor bo‘ladi,
Egamizning uyi turgan tog‘ni*
Qalin chakalakzor qoplaydi.

4–BOB

Egamiz butun dunyoda tinchlik o‘rnatadi

1 Shunday kunlar keladiki,
Egamizning uyi turgan tog‘*

Tog‘larning eng yuksagi bo‘lib qaror topadi.
Bu tog‘ hammasidan ham baland bo‘ladi,
Xalqlar u yerga daryoday oqib keladi.
2 Ko‘plab ellar keladi,
Ular shunday deb aytadi:
“Qani, yuringlar!
Chiqaylik Egamizning tog‘iga!
Qani, yuringlar!
Boraylik Yoqubning Xudosi uyiga!
Toki U bizga o‘rgatsin O‘zining yo‘llarini,
Toki yuraylik bizlar Uning so‘qmoqlaridan.”
Axir, Egamizning kalomi kelib chiqar Quddusdan,
Ha, Xudoning ta’limoti kelib chiqar Siondan.
3 Egamiz hukm qiladi ko‘p xalqlarning orasida,
Ajrim qiladi olisdagi kuchli millatlar orasida.
Qilichlarini aylantirishadi omochga,
Nayzalarini esa tok qaychilariga.
Qilich ko‘tarmaydi bir–biriga xalqlar,
Hech qachon jang qilmaydi ular.
4 Orom olar har kim o‘z uzumzorida,
O‘tirar har kim o‘z anjirzorida,
Biror kimsa ularga tahdid solmaydi.
Buni Sarvari Olamning O‘zi aytdi!

5 Hamma xalqlar o‘z xudolariga ergashaversin,
Biz esa abadulabad Egamiz Xudoning yo‘lidan yuramiz.

Isroil xalqi surgundan qaytib keladi

6 Egamizning kalomi shudir:
“Shunday vaqt keladiki, Men cho‘loqlarni yig‘ib olaman.
Haydab yuborilganlarni to‘playman,
O‘zim azobga giriftor qilganlarimni yig‘aman.
7 Cho‘loqlarni omon saqlayman,
Haydab yuborilganlardan kuchli bir xalq bunyod etaman,
O‘sha kundan boshlab, to abad Men, Egangiz,
Sion tog‘ida ularga hukmronlik qilaman.”

8 Ey Quddusdagi shoh qal’asi,
Xudo xalqining kuzatuv minorasi,
Sobiq hokimiyating o‘zingga qaytadi.
Ey Quddus shahri*,
Sening saltanating qayta tiklanadi.
9 Endi esa nechun faryod qilyapsan?
Nima bo‘ldi, hukmdoring yo‘qmidi?!
Nechun to‘lg‘oq tutgan ayol kabi azoblanyapsan?
Maslahatching nobud bo‘ldimi?!

10 Ey qiz Quddus*,
Tug‘ayotgan xotin kabi oh–voh qilmaysanmi?!
O‘zingni har tomonga tashlamaysanmi?!
Axir, hozir shahardan chiqib ketasan!
Yalang qirlarga borib maskan qilasan!
Ha, Bobilga sen surgun bo‘lasan*.
Biroq u yerda sen najot topasan,
Dushman qo‘lidan xalos qilar Egamiz seni.

11 Senga qarshi birlashdi talay xalqlar,
Sen haqingda shunday deb aytadi ular:
“Qani, kelinglar, Quddusni xo‘rlaymiz,
Shahvat bilan uni tomosha qilamiz.”
12 Ammo bilmas ular Egamizning niyatini,
Aslo tushunmaslar Uning rejalarini,
Egamiz ularni ne sababdan yiqqanini ular bilmaslar,
Bug‘doy boshoqlarini xirmonda yanchganday,
Egamiz ularni yanchmoqchi ekanini anglamaslar.
13 Egamiz demoqda:
“Turing, ey Quddus aholisi!
Yanchib tashlang ularni!*
Temirdan qilaman shoxlaringizni,
Bronzadan yasayman tuyoqlaringizni,
Ezib majaqlaysiz ko‘plab xalqlarni.”
Olgan o‘ljangizni Egamizga bag‘ishlaysiz,
Butun olam Rabbiysiga yov boyligini nazr qilasiz.

5–BOB

Xudo Baytlahmlik Hukmdorni va’da qiladi

1 Ey Quddus, yiqqin lashkaringni!
G‘animlar bizni qurshovga oldi!*
Ular Isroil hukmdorining betiga tayoq bilan uradi*.
2 Ammo Egamiz demoqda:
“Ey Efratdagi Baytlahm,
Sen Yahudoning mitti shahri bo‘lsang ham,
Isroilni Men uchun boshqaradigan zot sendan chiqadi*.
Uning nasabi qadimlarga borib taqaladi.”
3 Ha, Egamiz Isroil xalqini bir muddatga dushmanlarga taslim qiladi,
Ammo bu hol uzoq davom etmaydi.
Homilador ayolning ko‘zi yoriganda,
Bo‘lg‘usi hukmdorning birodarlari surgundan qaytadi.
Ular Isroil xalqi bilan birlashadi.
4 Egamizning qudrati ila o‘sha hukmdor suruvini boqadi,
O‘z Egasi Xudoning ulug‘vorligi ila ularni boshqaradi.

Isroil xalqi xatarsiz yashaydi,
Axir, hukmdorining dovrug‘i butun dunyoga yoyiladi.
5-6 O‘sha zot tinchlik o‘rnatuvchi bo‘ladi.

Mabodo Ossuriyaliklar*
Yurtimizga bostirib kelsa,
Chegaramizga qadam bossa,
Hukmdorimiz bizni himoya qiladi.
Ha, Ossuriyaliklar
Yurtimizga bostirib kelsa,
Qal’alarni ular yorib o‘tsa,
Biz ularga qarshi yetti yo‘lboshchini tanlaymiz,
Hatto sakkiz rahnamoni tayinlaymiz.
Ular qilich ko‘tarib, Ossuriya ustidan hukmronlik qilishadi,
Nimro‘dning yerida o‘z hukmini o‘tkazishadi.

7 Ko‘p xalqlar orasida
Yoqub naslining* omon qolganlari
Egamiz osmondan tushiradigan
Shudringday bo‘lishadi,
Maysalarni sug‘oradigan
Yomg‘irga o‘xshagan bo‘lishadi.
Ularni hech kim to‘xtata olmaydi,
Ular dushmanlari ustiga bostirib borishadi.
8 Ha, ko‘p xalqlar orasida
Yoqub naslining omon qolganlari
O‘rmon hayvonlari orasidagi
Arslonday bo‘lishadi,
Qo‘y suruvi orasiga kirib qolgan
Sher bolasiga o‘xshagan bo‘lishadi.
Yurgan yo‘llarida hammaga tashlanib g‘ajishadi,
Ularga hech kim bas kela olmaydi.
9 Ey Isroil, sening qo‘ling yovlardan baland keladi,
Barcha dushmanlaring qirilib ketadi.

Egamiz O‘z xalqini poklaydi

10 Egamizning kalomi shudir:
“O‘sha kuni otlaringizni Men yo‘q qilaman,
Jang aravalaringizni parcha–parcha etaman.
11 Vayron qilaman yurtingiz shaharlarini,
Yakson etaman jamiki qal’alaringizni.
12 Yurtingizda sehr–joduga barham beraman,
Orangizda bironta folbinni qoldirmayman.
13 Tasviru butsimon toshlaringizni yo‘q qilaman,
Boshqa sajda qilmaysiz qo‘lingiz ijodiga.
14 Asheraga* atalgan ustunlarni qo‘porib tashlayman,

Shaharlaringiz kulini ko‘kka sovuraman.
15 Menga itoat qilmagan
Xalqlar ustiga qahru g‘azabimni yog‘dirib,
Qasos olaman.”

6–BOB

Egamiz Isroil xalqi bilan da’volashadi

1 Egamizning so‘zini eshiting:
“Qani, turing!
Tog‘lar oldida ayting da’voingizni,
Qirlar eshitsin sizning ovozingizni.”
2 Ey tog‘lar, Egamizning da’vosiga quloq tuting,
Zaminning mangu poydevorlari*, siz ham eshiting!
Egamiz O‘z xalqi bilan da’volashadi,
Xalqi Isroil bilan U bahslashadi.

3 Egamiz demoqda:
“Ey xalqim, senga Men nima qildim?!
Senga tushdimi biror og‘irligim?!
Qani, javob bergin–chi Menga!
4 Men sizlarni Misr yurtidan olib chiqqan edim–ku,
U yerdagi qullikdan xalos etgan edim–ku.
Oldingizga yuborgandim yo‘lboshchilarni —
Muso, Horun va Maryamni.
5 Ey xalqim, nahot eslamasangiz
Mo‘ab shohi Boloqning yovuz niyatini,
Bavo‘r o‘g‘li Balomning unga bergan javobini?!
Shitimdan Gilgalga qilgan safaringizda ham
Nimalar yuz berganini bir eslang*.
Bu voqealarni esga olsangiz,
Men, Egangiz, sizlarni qutqarmoqchi bo‘lib,
Ne–ne ishlar qilganimni ko‘rasiz!”

Xudoning talablari

6 Yuksalgan Xudoga sajda qilganimda,
Nima olib boray Egamizning huzuriga?!
Unga atab qurbonliklar kuydirsammikan?!
Bir yoshli buzoqlarni nazr qilsammikan?!
7 Unga atab minglab qo‘chqorlarni so‘ysam,
Zaytun moyin daryo–daryo qilib oqizsam
Egamiz mendan mamnun bo‘larmikan?!
Itoatsizligim evaziga to‘ng‘ich o‘g‘limni beraymi?!
Gunohim evaziga o‘z farzandimni qurbon qilaymi?!
8 Ey inson, nima yaxshi ekanligini
Egamiz senga ayon qildi.

Shudir Uning sendan qilgan talabi:
Adolatli ish tutgin,
Mehr–shafqat qilishdan zavq olgin,
Kamtar bo‘lib, Xudoning yo‘lidan yurgin.

9 Xudodan qo‘rqish — donolik, axir!
Egamiz Quddus ahliga xitob qilar:
“Yaxshilab quloq soling!
Men sizlarni hademay jazolayman!*
10 Ey fosiqlar, harom boyligingizga qanday ko‘z yumay?!
Tarozidan urib yiqqan davlatingizni qanday unutay?!
Bunday boylikdan jirkanaman, axir!
11 Noto‘g‘ri tarozini ishlatgan odamni qanday oqlayin?!
Soxta qadoq toshlardan foydalangan kishiga qanday chidayin?!
12 Ey Quddus boylari, sizlar zo‘ravonlik qilyapsiz,
Ey shahar odamlari, sizlar aldayapsiz.
Yolg‘ondan boshqani bilmas tillaringiz.
13 Shuning uchun Men sizlarga qaqshatqich zarba beraman,
Gunohlaringiz uchun sizlarni xarob qilaman.
14 Sizlar yeysiz, lekin to‘ymaysiz,
Qorningiz doim och bo‘ladi.
Narsa yig‘asiz–u, saqlay olmaysiz,
Yiqqanlaringizni urushda nobud qilaman.
15 Siz ekasiz, ammo o‘rib olmaysiz.
Moy olasiz, ammo undan foydalanmaysiz.
Uzum ezasiz*, ammo sharobidan ichmaysiz.
16 Axir, sizlar shoh Omrining odatlarini tashlamayapsiz.
Axab* xonadonining barcha qilmishlariga taqlid qilyapsiz,
Ularning yo‘lini tutyapsiz.
Shuning uchun Men sizlarni xarob qilaman.
Sizni ko‘rganlar sizlardan hazar qiladi,
Barcha xalqlar sizlarni haqorat etadi*.”

7–BOB

Mixoning marsiyasi

1 Sho‘rim quridi!
Yozgi mevalar yig‘ib olingach,
Uzumzor hosili yig‘ishtirilgach,
Toklardan bir bosh uzum ham topa olmagan,
Bir dona anjirga zor bo‘lgan odamdayman men.
2 Xudojo‘y yo‘q bo‘ldi bu yurtda,
To‘g‘ri odam qolmadi insonlar orasida.
Qon to‘kaman deb, odamlar bir–birini poylaydi,
Hattoki qarindosh qarindoshiga tuzoq qo‘yadi.

3 Yomonlik qilishga ustadir ular.
Amaldoru qozilari pora olishadi,
Boylari xohlaganini qildirishadi,
Birgalikda ular haqiqatni buzib koʻrsatishadi.
4 Ularning himmatlisi yantoqqa oʻxshaydi,
Vijdonlisi bir uyum tikandan qolishmaydi.

Ey xalqim,
Soqchilar* sizlarga e'lon qilgan kun yaqinlashdi,
Ha, jazo oladigan kuningiz yetib keldi.
Hammangiz sarosimaga tushadigan vaqt boʻldi.
5 Doʻstingizga suyanmang,
Sherigingizga ishonmang,
Quchogʻingizda xotiningiz yotganda,
Qulf soling ogʻzingizga.
6 Oʻgʻil oʻz otasini xoʻrlaydi,
Qiz onasining yuziga sapchiydi,
Kelin qaynanasiga dushmanlik qilar.
Sizning dushmanlaringiz — oʻz uyingizdagilar.
7 Men esa Egamga tikaman koʻzlarimni,
Umid ila kutaman najotkorim Xudoni,
Albatta eshitar Xudoyim meni.

Xalq Egamizga yuz buradi

8 Holimni koʻrib shod boʻlmangiz, ey gʻanimlar!
Yiqilganimda oʻzim turib olarman.
Zulmatda oʻtirganimda,
Menga nur sochar Egam.
9 Gunoh qildim men Egamga qarshi,
Uning qahriga dosh beraman endi.
Bir kun kelib, U mening tarafimni oladi,
Mening haqligimni isbot etadi.
Yorugʻlikka olib chiqadi U meni,
Men koʻraman Xudoning adolatini.
10 Ey dushmanlarim, albatta buni koʻrasiz.
"Egang Xudo qani?!" deb meni masxara qildingiz,
Endi siz sharmandayi sharmisor boʻlasiz.
Men koʻzlarim bilan koʻraman sizning qulashingizni,
Oyoq osti boʻlasizlar koʻchadagi loy kabi.

Isroilning qayta tiklanishi haqida bashorat

11 Ey Quddus, kelar shunday zamonlar:
Sening devorlaring qayta qurilar,
Kengayib ketadi sening hududing.
12 Oʻsha kuni xalqing qaytib keladi*.
Ular Ossuriyadan Misrgacha,

Misrdan Furot daryosigacha bo‘lgan
Barcha o‘zga yurtlardan,
Uzoq dengiz sohillaridan,
Olis tog‘lar bag‘ridan kelishadi.
13 Boshqa xalqlarning yurtlari esa
O‘z qilmishlari dastidan xarobazorga aylanadi.

Mixoning iltijosi va Egamizning javobi

14 Ey Egam, O‘z xalqingning cho‘poni bo‘lgin,
O‘z suruvingni tayog‘ing bilan boshqargin,
Ularning yon–atrofi ko‘m–ko‘k yaylovlar,
Ular esa chakalakzorda yashayaptilar*.
Uzoq o‘tmishdagiday ularni o‘tlatgin,
Bashan va Gilad* yaylovlarida ularni to‘yg‘azgin.

15 Egamiz demoqda:
“Men sizlarni Misrdan olib chiqqan kunlarimday,
Sizlarga O‘z ajoyibotlarimni yana ko‘rsataman.”

16 Ey Egam, ajoyibotlaring oldida
Xalqlar buyuk lashkarlarining ojizligini ko‘rib,
O‘zlari sharmanda bo‘ladilar.
Qo‘llari bilan yuzlarini berkitadilar.
Ularning quloqlari garang bo‘lib qoladi.
17 Ilon kabi ular tuproq yalaydi,
Sudraluvchi maxluqlar kabi tuproq oshaydi.
Ey Egamiz Xudo, ular titrab–qaqshab,
O‘z uyalaridan Sening oldingga chiqadilar.
Sening huzuringda dahshatga tushadilar.

18 Ey Xudo, Senga o‘xshashi bormikan?!
Xalqingdan omon qolganlarning
Gunohlarini Sen kechirasan,
Ularning itoatsizligini afv etasan.
To abad g‘azablanmassan xalqingdan,
Zavq olasan O‘zing mehr–shafqat ko‘rsatishdan.
19 Sen bizga yana rahm qilasan.
Ayblarimizni yerga ko‘mib yuborasan,
Gunohlarimizni dengiz tubiga uloqtirasan.
20 Qadimda ota–bobolarimizga ont ichganingday*,
Sen Yoqub avlodiga sadoqatli bo‘lasan,
Ibrohim nasliga so‘nmas sevgingni ko‘rsatasan.

IZOHLAR

…Yahudo…Isroil… — janubiy shohlik va shimoliy shohlik nazarda tutilgan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi YAHUDO va ISROIL so‘zlariga qarang.

1:1 *Yahudo* — janubiy shohlik nazarda tutilgan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi YAHUDO so‘ziga qarang.

1:1 *…Yo‘tom, Oxoz va Hizqiyo hukmronlik qilgan davrlar…* — miloddan oldingi 740-687 yillar.

1:1 *Mo‘rashat* — Yahudoning janubidagi qishloq, Quddusdan qariyb 40 kilometr janubi–g‘arbda joylashgan.

1:1 *Samariya va Quddus* — Samariya Isroilning, ya’ni shimoliy shohlikning poytaxti, Quddus esa Yahudoning, ya’ni janubiy shohlikning poytaxti edi.

1:5 *Yoqub nasli* — Xudo Yoqubning ismini Isroil deb o‘zgartirgan (Ibtido 32:27-28 ga qarang), shuning uchun ko‘pincha Yoqub nasli deganda Isroil, ya’ni shimoliy shohlik aholisi nazarda tutiladi. Biroq bu o‘rinda mazkur ism ham Isroil, ham Yahudo xalqlariga nisbatan ishlatilgan. Yoqub bu ikkala xalqning bobokaloni bo‘lgan. Yahudo xalqi Mixo payg‘ambarning bashoratini faqat Isroil xalqiga taalluqli, deb o‘ylagan bo‘lishi mumkin. Biroq oyatning oxirgi ikki qatoridan ko‘rinib turibdiki, Mixo payg‘ambar Yahudo xalqini ham butparastlikda ayblab, jamiyatni yemirgan majusiylik odatlarini fosh etadi.

1:5 *Butparastlar uyasi* — ibroniycha matnda *Bamax*lar, ya’ni “Tepaliklar”. Kan’on xudolariga topinadigan joylar *bamax* deb atalardi. Odatda bu sajdagohlar tepaliklarda joylashgan bo‘lib, u yerda Kan’on xudolarining tasvirlari va qurbonliklar keltirish uchun qurbongoh bo‘lardi. Bu oyatda Mixo payg‘ambar Quddus shahrini o‘shanday tepalik sifatida tasvirlamoqda.

1:7 *Fahsh yo‘li…fohishalar…* — o‘sha paytlarda Kan’ondagi butparast xalqlar o‘z sajdagohlarida diniy vazifalardan birini fahsh orqali bajarardilar. Butparast xalqlarning udumlariga ko‘ra, odamlar fohishalar va fohishlar bilan jinsiy aloqa qilish orqali o‘z xudolariga topinardilar, xudolaridan farovonlik ato qilishni so‘rardilar. Lekin Egamiz Isroil xalqiga bu yo‘l bilan sajda qilishni qat’iyan man etgan (Qonunlar 23:17-18 ga qarang). Fahsh orqali topilgan pulga ular butxonalardagi butlarni oltinu kumush bilan bezatishardi. Bashoratga ko‘ra, kelajakda Samariyani zabt etadigan dushman lashkari bu qimmatbaho bezaklarni o‘lja qilib, boshqa joydagi fohishalarga sarf qilishadi.

1:8 *Bo‘ta* — ibroniycha matnda *Tuyaqush*. Tuyaqush qattiq, mungli tovush chiqaradi.

1:10 *Gat aholisi bilan bu haqda hasratlashmang…* — Filistlarning bu shahri Quddusdan g‘arbda joylashgan bo‘lib, Yahudo qir etaklari bag‘ridagi Mixoning ona qishlog‘iga yaqin edi. Filistlar Isroil xalqining dushmani edi. Shoh Shoul va uning o‘g‘li Yo‘natan Filistlar tomonidan o‘ldirilgandan so‘ng, Dovud ular uchun marsiya kuylagan edi. Mixo payg‘ambar ham o‘z marsiyasini Dovudning so‘zlari bilan boshlamoqda (2 Shohlar 1:20 ga qarang). Yahudo xalqining boshiga tushadigan kulfatlardan Filistlar xursand bo‘lishini Mixo xohlamaydi. Shu bobning 10-16–oyatlarida bosqinchilar Yahudo qir etaklariga g‘arbdan bostirib kelishi va o‘sha hududdagi ba’zi shahar va qishloqlarni zabt etishi haqida yozilgan. Shular qatorida dushmanlar Mixoning ona qishlog‘ini ham bosib

oladi. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, miloddan oldingi 701 yilda Ossuriya shohi Sanxariv Yahudo shohligiga g'arbdan bostirib kelib, 46 ta shaharni qo'lga kiritgan. U qariyb 20.000 aholini surgun qilgandan so'ng, Quddusga ham yurish qilgan edi (4 Shohlar 18:13-16 ga qarang).

1:10 *Bayt–Lafroga borib…tuproqqa yumalang* — ibroniychada Bayt–Lafro nomining ma'nosi *tuproq xonadoni*. Tuproqqa yoki kulga yumalash umidsizlikni va qayg'uli holatni ifodalaydi (Yeremiyo 6:26, Hizqiyol 27:30 ga qarang).

1:11 *Shofir* — ibroniychadagi ma'nosi *yoqimli*, biroq bu shahar aholisining qismati aslo yoqimli emas.

1:11 *Zanon* — bu nom ibroniychadagi *tashqariga chiqmoq* so'ziga ohangdosh. Biroq bu shahar aholisi tashqariga chiqib, dushmanga qarshilik ko'rsatishga aslo jur'at eta olmaydi.

1:11 *Bayt–Ezel* — ibroniychadagi ma'nosi *qo'shni uy*. Lekin bu shahar aholisi yaxshi qo'shni bo'la olmaydi, chunki ular o'z yurtdoshlariga boshpana bera olmaydi.

1:12 *Moro't* — bu nom ibroniychadagi *achchiq* so'ziga ohangdosh. Bu so'z ko'chma ma'noda bo'lib, iztirobu alamga ishora qiladi.

1:13 *Laxish* — bu nom ibroniychadagi *jangovar otlar* iborasiga ohangdosh. Laxish shahri mustahkam qal'a bo'lib, jangovar otlar va jang aravalariga ega edi. To'liqroq ma'lumotga ega bo'lish uchun lug'atdagi JANG ARAVASI iborasiga va unga ishlangan rasmga qarang.

1:13 *Quddus ahli* — ibroniycha matnda *Qiz Sion*, Quddus ahliga nisbatan qo'llangan she'riy usul. 3:10 izohiga qarang.

1:13 *…Quddus ahlini ilk bor gunohga boshladingiz!* — bu yerda Mixo qanday gunohni nazarda tutgani aniq emas. Laxish aholisi Yahudo xalqini butparastlikka boshlagani yoki Xudoga umid bog'lamay, harbiy kuchiga, otlaru jang aravalariga ishongani nazarda tutilgan bo'lishi mumkin (5:10 ga va Ishayo 31:1, Xo'sheya 10:13, 14:3 ga qarang).

1:14 *Mo'rashat* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Mo'rashat–Gat*. Mixo payg'ambar shu qishloqda tavallud topgan edi (shu bobning 1–oyatiga va o'sha oyatning uchinchi izohiga qarang).

1:14 *Endi Mo'rashat bilan xayrlashavering, Esdalik sovg'alaringizni ularga taqdim qiling* — ibroniycha matndan so'zma–so'z tarjimasi *Endi Mo'rashat uchun qalin beringlar*. Mo'rashat nomi ibroniychadagi *unashtirilgan* so'ziga ohangdosh. Turmushga chiqayotgan qiz o'z otasining uyidan chiqib ketganiday, Mo'rashat aholisi ham o'z uylaridan chiqib ketadilar. Mixo payg'ambar bu o'rinda so'z o'yini qilib, Mo'rashat aholisining surgun bo'lishiga ishora qilyapti.

1:14 *Axsib* — bu nom ibroniychadagi *yolg'onchi* yoki *pand beruvchi* so'ziga ohangdosh.

1:15 *Morisho* — bu nom ibroniychadagi *g'olib* so'ziga ohangdosh.

1:16 *…Sochingizni qirdiring* — sochni qirish umidsizlikni va qayg'uli holatni ifodalaydi.

1:16 *…farzandlaringiz…bolalaringiz…* — Yahudoning shaharlari va qishloqlaridagi aholiga nisbatan qo'llangan she'riy usul.

2:1 *yovuzlikni rejalashtirganlar* — shu bobning 1-11–oyatlarida Mixo Samariya va

Quddusdagi nufuzli odamlarni ogohlantirib, kambag‘allarga zulm o‘tkazganlari uchun ularga qarshi bashorat qilyapti.

2:4 *dushmanlar* — yoki *arzimas odamlar* yoxud *xiyonatkorlar*.

2:7 *Yoqub nasli* — shu bobning 1–oyati izohiga qarang.

2:9 *Farzandlarining nasibasini Mening yurtimdan uzdingiz* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *Farzandlarini Mening ulug‘vorligimdan to abad mahrum qildingiz*. Bu gapdagi *Mening ulug‘vorligim* iborasi Xudo O‘z xalqiga bergan yurtni bildirsa kerak.

2:12 *Yoqub nasli* — Xudo Yoqubning ismini Isroil deb o‘zgartirgan (Ibtido 32:27-28 ga qarang), shuning uchun ko‘pincha Yoqub nasli deganda Isroil, ya’ni shimoliy shohlik aholisi nazarda tutiladi. Biroq bu o‘rinda mazkur ism ham Isroil, ham Yahudo xalqlariga nisbatan ishlatilgan. Yoqub bu ikkala xalqning bobokaloni bo‘lgan.

3:1 *…Yoqub…Isroil…* — bu o‘rinda Mixo Yahudoga, ya’ni janubiy shohlikka ishora qilmoqda (shu bobning 9-10–oyatlariga qarang).

3:8 *…Yoqub…Isroil…* — shu bobning 1–oyati izohiga qarang.

3:10 *Sion* — Quddusdagi Ma’bad qurilgan tepalik Sion tog‘i deb atalgan. Eski Ahddagi she’riy parchalarda va payg‘ambarlar bitiklarida Sion so‘zi ko‘pincha Quddus shahriga yoki Xudoning xalqiga nisbatan ishlatilgan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi SION so‘ziga qarang.

3:12 *Egamizning uyi turgan tog‘* — Quddusdagi Sion tog‘iga ishora. 3:10 izohiga qarang.

4:1 *Egamizning uyi turgan tog‘* — Quddusdagi Sion tog‘iga ishora. 3:10 izohiga qarang.

4:8 *…Quddus…Quddus shahri…* — ibroniycha matnda *…qiz Sion…qiz Quddus…*. She’riy usulda qo‘llanilgan mazkur ibroniycha iboralar Quddus shahriga yoki uning aholisiga ishora qiladi (shu bobning 10, 13–oyatlarida ham bor). 3:10 izohiga qarang.

4:10 *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion* (shu bobning 11–oyatida ham bor).

4:10 *…Bobilga sen surgun bo‘lasan* — miloddan oldingi 586 yilda Bobil shohi Navuxadnazar Quddusni vayron qilib, aholining asosiy qismini Bobilga surgun qilgan edi (4 Shohlar 25:1-21 ga qarang).

4:13 *Yanchib tashlang ularni!* — donni boshoqdan ajratish jarayoni yanchish deyiladi. Qadimgi Yaqin Sharqda don yanchish uchun ba’zan ho‘kizlarni don boshoqlari ustidan yurg‘izishardi. Yanchish so‘zi ko‘pincha Eski Ahdda hukmga yoki urushda halokatga duchor bo‘lishga nisbatan ko‘chma ma’noda ishlatilgan. Mazkur oyatda Quddus aholisi o‘z dushmanini bosib ezadigan kuchli ho‘kizday tasvirlangan.

5:1 *G‘animlar bizni qurshovga oldi!* — 4:10 ning ikkinchi izohiga qarang.

5:1 *…betiga tayoq bilan uradi* — yoki *…betiga saltanat hassasi bilan uradi*. Saltanat hassasi kuch–qudrat va hukmronlik ramzi edi. Bu o‘rinda Dovud zurriyotidan bo‘lgan shohning butunlay mag‘lub bo‘lishi va xor qilinishi anglashiladi.

5:2 *…sendan chiqadi* — Xudo va’da qilgan hukmdor, ya’ni Masih, shoh Dovud zurriyotidan kelib chiqadi. Shoh Dovud ham Baytlahmda tavallud topgan edi (1 Shohlar 17:12 ga qarang). To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi MASIH so‘ziga qarang.

5:5-6 *Ossuriya* — qadimgi qudratli shohlik. Uning poytaxti Naynavo shahri hozirgi Iroqning shimolida joylashgan edi. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi OSSURIYA so‘ziga qarang. Bu oyatda Mixo payg‘ambar aynan Ossuriya shohligini emas, balki ramziy ma’noda Xudoga va Uning aziz xalqiga qarshi chiqqan dushmanlarni nazarda tutgan bo‘lishi mumkin. Mixo Ossuriyani Nimro‘dning yeri deb atashi ham shundan dalolat beradi, chunki Nimro‘d sharqda asos solgan qudratli shohlik doim Isroil yurtiga tajovuz qilib kelgan (Ibtido 10:8-12 ga qarang).

5:7 *Yoqub nasli* — 2:12 izohiga qarang.

5:14 *Ashera* — Kan’ondagi xalqlar sajda qilgan hosildorlik xudosi bo‘lib, ayol qiyofasida tasavvur qilingan. Uning erkak jufti Baal edi. Asheraning tasvirlari baland ustun shaklida bo‘lib, yog‘ochdan yasalgan edi.

6:2 *Zaminning mangu poydevorlari* — qadimda Isroil xalqining tasavvuriga ko‘ra, yer tep–tekis bo‘lib, yer ostida buyuk dengiz bor edi, dengiz tubida o‘rnatilgan ulkan ustunlar yerni ushlab turardi. Bu ustunlar dengiz tubidagi poydevorga tayanardi.

6:5 *…Nimalar yuz berganini bir eslang* — Boloq bilan Balom Isroil xalqini la’natlashga qanchalar urinmasin, Xudo Isroilga baraka berar edi (Sahroda 22:1-24:25 ga qarang). Xudo Iordan daryosining suvlarini to‘xtatib, O‘z xalqini daryoning sharqidagi Shitimdan g‘arbdagi Gilgalga eson–omon olib o‘tdi, va’da qilgan yurtni ularga berdi (Yoshua 3:1-4:19 ga qarang).

6:9 *Yaxshilab quloq soling! Men sizlarni hademay jazolayman!* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *Kaltakka va uni Tayinlaganga quloq sol!* Bu o‘rinda kaltak shaxs timsolida bo‘lib, Xudo beradigan jazoga ishora qiladi.

6:15 *Uzum ezasiz…* — qadimgi paytlarda odamlar uzumni qoyatoshga o‘yilgan chuqurga yoki tuproqdan qazilgan, tubiga va atrofiga zich qilib tosh terilgan chuqurga solib, sharbatini siqib olish uchun oyoqlari bilan ezardilar. Sharbat o‘sha chuqurdan yana boshqa bir chuqurga oqib tushardi.

6:16 *…Omri…Axab…* — Mixo payg‘ambar davridan oldin Isroilda, ya’ni shimoliy shohlikda hukmronlik qilgan ikki shoh. Omri va uning o‘g‘li Axab o‘zlarining butparastligi va o‘ta qabihligi bilan tanilgan edilar (3 Shohlar 16:25-33 ga qarang).

6:16 *…Barcha xalqlar sizlarni haqorat etadi* — qadimiy yunoncha tarjimadan. Ibroniycha matnda *…Mening xalqim sizlarni haqorat etadi*.

7:4 *Soqchilar* — Xudo O‘z xalqini ogohlantirib, tavba qilishga undash uchun yuborgan payg‘ambarlar nazarda tutilgan.

7:12 *O‘sha kuni xalqing qaytib keladi* — Ishayo 11:11-12, 27:12-13, Zakariyo 10:8-10 ga qarang.

7:14 *…chakalakzorda yashayaptilar* — vayronaga aylangan shohlikning majoziy ifodasi (3:12 ga qarang).

7:14 *Bashan va Gilad* — Iordan daryosining sharq tomonidagi yerlar bo‘lib, o‘zining ko‘m–ko‘k yaylovlari va nasldor, sog‘lom chorvasi bilan mashhur edi.

7:20 *…ota–bobolarimizga ont ichganingday…* — Ibtido 12:1-3, 18:18-19, 22:15-18, 28:10-15 ga qarang.

NOXUM

PAYG‘AMBARNING KITOBI

Kirish

Noxum kitobi Ossuriya poytaxti Naynavoning* qulashi haqida yozilgan she’riy shakldagi bashoratdir. Ossuriya qudratli shohlik bo‘lib, o‘zi bosib olgan xalqlarga nisbatan nihoyatda zolim va shafqatsiz edi. Yunus payg‘ambar davrida Naynavo aholisi gunohlaridan tavba qilgan edi*, Noxum payg‘ambar davrida esa ular yana zo‘ravonliklarga, butparastlik va xudbinlikka mukkasidan ketgan edilar. Ossuriya lashkari miloddan oldingi 722 yilda Isroilni* bosib olib, aholisini Ossuriyaga surgun qilgan edi. Ular Yahudoga, ya’ni janubiy shohlikka ham ko‘p tahdid solgan edilar. Shu sababdan Noxum payg‘ambar Naynavoning ayanchli qismati haqida bashorat qiladi.

Noxum payg‘ambar Naynavoning qulashidan oldin va’z qiladi. Bobilliklar miloddan oldingi 612 yilda Naynavoni zabt etadilar. Kitobdan o‘rin olgan No‘–Omonning, ya’ni Fiva shahrining qulashi haqidagi voqealar miloddan oldingi 663 yilda, Noxum payg‘ambar faoliyat ko‘rsatishidan oldin ro‘y beradi (3:8-10 oyatlarga va 3:8 izohiga qarang).

Mazkur kitobda Noxum payg‘ambar Xudoni — butun olamning va barcha xalqlarning Hukmdori, hammaning taqdirini nazorat qiluvchi haq Xudo deb e’lon qiladi. Muallif Xudoning sabr–toqati va mehribonligi haqida so‘z yuritadi. Shu bilan birga, Xudoning odilligiga alohida urg‘u berib, aybdorni U aslo oqlamasligini ta’kidlab o‘tadi.

1–BOB

1 Naynavo shahri* haqida bashorat. Bu kitobda Elqo‘shlik* Noxumga kelgan vahiy bayon qilingan.

Egamizning Naynavoga bo‘lgan g‘azabi

2 Egamiz rashkchi*, qasoskor Xudodir,
Egamiz qasoskor, darg‘azabdir.
G‘animlaridan Egamiz qasos olar,
Dushmanlaridan g‘azablanib yurar.
3 Egamizning jahli tez emas,
Uning kuchi buyukdir,
Aybdorni Egamiz aslo oqlamas!

Yurgan yo‘li quyunu bo‘ron bo‘lar.
Oyog‘i ostidan changday ko‘tarilar
Qora bulutlar.
4 U dengizga do‘q urib, uni quritar,
Barcha daryolarni qaqratib yuborar.
Bashan va Karmil yaylovlari xazon bo‘ladi,
Lubnon* gullari so‘lib qoladi.

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

5 Uning oldida silkinar tog‘lar,
Parchalanib ketar adiru qirlar.
Huzurida zamin tebranar,
Butun jahon va undagi mavjudot qaltirar.
6 Uning qahriga kim bardosh bergay?!
Alangali g‘azabidan kim omon qolgay?!
Uning g‘azabi olovday yoyilar,
Uning oldida qoyalar chilparchin bo‘lar.

7 Egamiz yaxshidir,
Kulfat kunida qo‘rg‘ondir U,
Xudoda panoh topganlarni saqlaydi U.
8 Toshqin sel bilan Naynavoni vayron qilar,
Yovlarining payiga tushib, zulmatga haydar.

9 Ey Naynavo, nechun Egamizga qarshi fitna uyushtirasan?!
Axir, U bir urib seni qirib tashlaydi,
Ikkinchi urishiga hojat bo‘lmaydi.
10 Chirmashgan tikanu quruq xas–cho‘p kabi
Sizlar ham, ey mayxo‘rlar, yondirib tashlanasiz!
11 Ey Naynavo, qabih shoh sendan chiqdi,
Egamizga qarshi u fitna–fasod qildi.

12 Egamiz esa shunday aytur:
“Ossuriyaliklar* kuchli va behisob bo‘lsalar–da,
Ular qirilib, yo‘q bo‘ladilar.
Ey xalqim, boshingga kulfat soldim!
Endi bunday kulfat solmayman zinhor!
13 Seni Ossuriya bo‘yinturug‘idan ozod qilaman,
Kishanlaringni* uzib tashlayman.”

14 Sen haqingda, ey Ossuriya, Egamiz shunday amr etar:
“Sening noming dunyodan o‘char.
Yo‘q qilaman xudolaring uyidagi quyma va o‘yma butlarni,
Yaramas xulq–atvoring uchun hozirlayman qabringni.”

Naynavo qulaydi

15 Qarang! Xushxabar keltiruvchi kimsa,
Tog‘lar osha shoshib keladi bu yoqqa.
Tinchlikni e’lon qiladi U sizga!
Ey Yahudo xalqi*, nishonlagin bayramlaringni,
Olib kel ont ichib atagan nazrlaringni.
Yurtingga tajovuz qilmas endi qabihlar,
Zero, tamomila yo‘q bo‘ldi ular.

2–BOB

1-2 Dushmanlar Isroil yurtini xarob qilgan,
Uzumzorlarini payhon etgan.
Biroq Egamiz tiklar Yoqub naslining ulug‘vorligini,
Ha, Isroil xalqining buyukligini.

Bosqinchi senga hujum qildi, ey Naynavo!*
Qani bo‘l, qo‘riqla qo‘rg‘onlaringni,
Yo‘ldan uzma sen ko‘zingni.
Yig‘ib olgin bor kuchingni,
Jangga bog‘la belingni.
3 Dushman sipohlarining qalqoni qizil,
Jangchilarining kiyimi alvon,
Jang kuni aravalari olovday chaqnar,
Behisob nayzalari bosh uzra tebranib turar.

4 Shahar ichida aravalar quturib yelar,
Maydonlarni kesib u yoqdan–bu yoqqa o‘tar,
Mash’alalarga o‘xshab yonib turar,
Yashin tezligi bilan uchar.
5 Naynavo shohi amr berar lashkarboshilariga,
Olg‘a bosib qoqinar ular yo‘lda.

Qalqonlari panohida* bosqinchilar
Shahar devoriga yopirilar.
6 Daryo to‘g‘onlarini* ular buzib tashlar,
Saroy ivib, qulay–qulay deb turibdi.
7 Shahar ahlini surgun qilishga qaror qilindi,
Cho‘rilari o‘z ko‘ksiga urib,
Musichaday nola qilmoqda.
8 Naynavo darz ketgan hovuzga* o‘xshaydi,
Yoriqlaridan suv oqib ketganday,
Uning aholisi qochib ketyapti,
Ortidan “To‘xtanglar!
To‘xtanglar!” degan qichqiriqlar eshitilar,
Lekin hech kim ortiga qaytmas.
9 Bosqinchilar baqirar:
“Talon–taroj qiling kumushu oltinni!
Bitmas–tuganmasdir Naynavoning xazinasi!
Serobdir uning qimmatbaho narsasi!”

10 Ship–shiydam, vayron, talqon bo‘ldi Naynavo!
Qo‘rquvdan yuraklar orqaga tortib ketdi,
Tizzalar qaltiradi, badanni titroq bosdi,
Bo‘zday oqardi hammaning yuzi!

11 Nima bo‘ldi Naynavo shahriga?!
O‘xshar edi–ku u sherning uyasiga.
Ha, o‘xshar edi Naynavo sher bolalarini boqqan bir inga.
Sher va ona sher izg‘igan paytda,
Bolalari xatarsiz edi u yerda!
12 Sher o‘z bolalari uchun
Yetarlicha o‘lja tilka–pora qilgan,
U ona sher uchun ham ovini bo‘g‘izlagan,
Murda bilan to‘ldirgan o‘z inlarini,
O‘lja bilan — uyalarini.

13 Sarvari Olam shunday aytmoqda: “Men senga qarshiman, ey Naynavo! Jang aravalaringni tutatib yondiraman. Yosh sherlaring qilichdan halok bo‘ladi. Sen endi yer yuzida talonchilik qilmaysan. O‘lponchilaringning ovozi o‘chadi.”

3–BOB

Naynavoning qismati

1 Holingga voy, ey qo‘li qon shahar!
O‘taketgan makkor, o‘ljaga to‘lgan shahar!
U yerdagi qotilliklar hech tugamas!

2 Quloqqa chalinar qamchilarning vizillashi,
G‘ildiraklarning taraq–turug‘i,
Yelayotgan ot tuyoqlarining tovushi,
Jang aravalarining gumburlashi!
3 Jangga kirmoqda otliq sipohlar,
Yalt–yult etmoqda qilichlar,
Yarqiramoqda nayzalar,
Uyilib ketdi o‘liklar,
Uyum–uyum bo‘ldi jasadlar,
Murdalarning son–sanog‘i yo‘q.
Qoqilishar jasadlarga odamlar!

4 Ey Naynavo*, o‘zingni buzuq fohishaday* tutding,
Suyuqoyoq jodugarday odamlarni rom qilding,
Buzuqliging bilan xalqlarni qul qilding,
Sehr–jodularing bilan o‘zingga og‘dirding.
5 “Men senga qarshiman!
— deb aytmoqda Sarvari Olam. —
Men ko‘ylagingni ko‘tarib,
Xalqlarga yalang‘och tanangni ko‘rsataman,
Ellar oldida sharmandangni chiqaraman.
6 Ustingdan axlat yog‘dirib, seni xo‘rlayman.
Odamlarga seni tomosha qildiraman.
7 Seni ko‘rganlar orqaga chekinib, shunday deyishar:

«Naynavo vayron bo‘ldi!
Kim unga achinar ekan?!»
Seni yupatadigan hech kim yo‘q!”

8 No‘–Omon* shahridan sening ortiq joying bormidi?!
O‘sha shahar Nil daryosi bo‘yida joylashgandi,
Suvlar qurshovida turgandi,
Daryo — uning istehkomi,
Suvlar — himoyasi bo‘lgandi.
9 Habashistonu* Misr uning ustidan hukmronlik qilardi,
Kuchining chek–chegarasi yo‘q edi.
Liviya* bilan Lub uning ittifoqdoshlari edi.
10 Shunday bo‘lsa–da,
No‘–Omon shahrining aholisi surgun qilindi,
Odamlari asirlikka olib ketildi,
Har bir ko‘chaning boshida
Toshga urib o‘ldirildi go‘daklari,
Aslzodalari uchun qur’a tashlandi,
Barcha zodagonlari zanjirband bo‘ldi.

11 Ey Naynavo, sen ham mast bo‘lib, gandiraklab qolasan*,
Bekinasan, dushmanlaringdan qochib, panoh izlaysan.
12 Sening hamma qal’alaring
Mevasi pishgan anjir daraxtiga o‘xshar.
Anjirni silkitsang,
Anjirlar xo‘randaning og‘ziga tushar.
13 Lashkaringga bir qarasang–chi!
Xotin kishidan farqi yo‘q–ku ularning.
Yurtingning darvozalari yov uchun keng ochildi,
Darvozalarning tambalarini olov yo‘q qildi.

14 Qamalga tayyorlangin!
Suvga to‘ldir idishlaringni!
Mustahkamla qo‘rg‘onlaringni!
Oyoq bilan ezgin loyni,
Tayyorla tezroq qoliplaringni!
15 Baribir olov seni yamlab yuborar,
Chigirtka* ekinlarni qirtishlaganday,
Qilich seni qirib tashlar.

Chigirtkaday ko‘payaver!
16 Savdogarlaringni osmondagi yulduzlardan ham ko‘p qilding,
Biroq ular chigirtkaday yurtingni talashar,
So‘ng qanot qoqib uchib ketishar.
17 Sovuq kunda devorlarga qo‘nadigan,
Quyosh chiqqach esa uchib yo‘q bo‘ladigan

Chigirtkadaydir sening posbonlaring,
Chigirtka galasidaydir sening sarkardalaring.
Ular qayerga g‘oyib bo‘lganini bilmaydi hech kim.

18 Ey Ossuriya shohi,
Rahnamolaringning* ko‘zi yumilgan,
Yo‘lboshchilaring abadiy uyquga ketgan,
Sening xalqing tog‘larga tarqalgan,
Ularni yig‘adigan biror kimsa yo‘q.
19 Sening yarangni davolab bo‘lmas,
Jarohating halokatlidir.
Bu haqda xabar topgan hamma odamlar
Xursandligidan chapak chalar.
Zotan, hech kim cheksiz zulmingdan
Qochib qutula olmagan.

IZOHLAR

Naynavo — Nineviya nomi bilan ham ma’lum bo‘lib, hozirgi Iroqning shimolida joylashgan edi.

Yunus payg‘ambar davrida…tavba qilgan edi… — Yunus 3:1-10 ga qarang. Yunus payg‘ambar taxminan miloddan oldingi 750-725 yillarda faoliyat ko‘rsatgan.

Isroil — mazkur kitobda shimoliy shohlik *Isroil* degan nom bilan, janubiy shohlik esa *Yahudo* degan nom bilan yuritilgan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi ISROIL va YAHUDO so‘zlariga qarang.

1:1 *Naynavo shahri* — Ossuriyaning poytaxti. Bu shahar Nineviya nomi bilan ham ma’lum.

1:1 *Elqo‘sh* — Yahudo yurtidagi bir qishloq bo‘lishi mumkin.

1:2 *rashkchi* — Chiqish 34:13-14 ga qarang.

1:4 *Bashan va Karmil…Lubnon…* — bu yerlar o‘zlarining yam–yashil yaylovlari, gullari va daraxtlari bilan mashhur edi.

1:12 *Ossuriya* — qadimgi qudratli shohlik. Uning poytaxti Naynavo shahri hozirgi Iroqning shimolida joylashgan edi. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi OSSURIYA so‘ziga qarang.

1:13 *…Ossuriya bo‘yinturug‘i…Kishanlaring…* — Ossuriyaning Yahudo yurti ustidan bo‘lgan siyosiy hukmronligiga ishora. Yahudo yuz yildan ortiq davr mobaynida Ossuriya shohiga o‘lpon to‘lagan.

1:15 *Yahudo xalqi* — janubiy shohlik nazarda tutilgan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi YAHUDO so‘ziga qarang.

2:1-2 *Naynavo* — Nineviya nomi bilan ham ma’lum.

2:5 *Qalqonlari panohida…* — bu o‘rindagi ibroniycha so‘z sipohlarning qalqonlarini yoki maxsus qurilmani bildiradi. Shaharga hujum qilgan sipohlar ko‘chiriladigan bunday qurilma yordamida yoki qalqonlari bilan o‘zlarini shahar devorlari ustidagi himoyachilardan asrar edilar. Ular shaharni bosib olish uchun shahar devorlarini teshardilar yoki devorga qiyalatib tuproq uyardilar.

2:6 *Daryo to‘g‘onlari* — shahar ichidan oqib o‘tadigan suvni nazorat qilib, uni boshqarish uchun ishlatiladigan, shahar tashqarisida joylashgan to‘g‘onlar nazarda tutilgan. Bosqinchilar mana shu to‘g‘onlarni buzib, shahar devorlariga ziyon keltirgan bo‘lishlari mumkin. Yoki Noxum majoziy ma’noda bosqinchilarni Xudo tomonidan yuborilgan kuchli selga o‘xshatayotgan bo‘lishi mumkin (1:8 ga qarang).

2:8 *hovuz* — Naynavo shahri shoh bog‘lariga suv yetkazib beradigan hovuzlari bilan mashhur edi. Matndagi kinoya bilan muallif shahar aholisini darz ketgan hovuzdan oqib ketadigan suvlarga o‘xshatadi, chunki odamlar o‘zlarini qutqarish uchun Naynavodan qochib ketadi.

3:4 *Naynavo* — Nineviya nomi bilan ham ma’lum.

3:4 *…buzuq fohishaday…* — Naynavo aholisining xatti–harakatlari va qilmishlariga mos

obraz. Naynavo Ossuriya kuch–qudratining markazi va ma’buda Ishtarga qilinadigan sajdaning o‘chog‘i edi. Butxonadagi fohishalar bilan jinsiy aloqa ma’buda Ishtarga sajda qilish marosimining bir qismi edi. Ayrim hollarda, sajda qiluvchilar Ishtarning o‘zini ham fohisha deb atardilar. Ossuriya fohishaga o‘xshab boshqa xalqlarni qudrati bilan o‘ziga rom qilgan edi. Ammo keyinchalik bu xalqlar Ossuriyaga bog‘lanib qolganlaridan afsuslanar edilar, chunki Ossuriya ularni dushmanlardan himoya qilsa ham, ularni qattiq nazorat ostiga olgan edi va ulardan katta o‘lpon to‘lashni talab qilardi (4 Shohlar 16:7-9, 17:1-6 ga qarang).

3:8 *No‘–Omon* — Fiva nomi bilan ham ma’lum. Fiva shahri Misr janubiy hududining markazi bo‘lib, Misr tarixida birmuncha vaqt poytaxt ham bo‘lgan edi. Miloddan oldingi 663 yilda Ossuriya shohi Ashshurbanapal tomonidan bosib olingan va shaharning ba’zi qismlari vayron qilingan.

3:9 *Habashiston* — ibroniycha matnda *Kush*. Bu joy Misrdan janubda bo‘lib, hozirgi Sudan va Efiopiya mamlakatlarining bir qismini o‘z ichiga olgan edi.

3:9 *Liviya* — ibroniycha matnda bu yurtning qadimgi nom *Fut*. Bu o‘rinda Fut va Lub nomlari Liviyaning ikkita hududiga nisbatan ishlatilgan bo‘lishi mumkin.

3:11 *…mast bo‘lib, gandiraklab qolasan…* — bu o‘rinda sharob Xudo g‘azabining ramzi bo‘lib, sharobdan mast bo‘lish Xudoning hukmiga duchor bo‘lishni bildiradi (Ishayo 51:17-23, Yeremiyo 25:15-29 ga qarang).

3:15 *Chigirtka* — ba’zan to‘da–to‘da bo‘lib kelib, dalalardagi hosilga katta zarar yetkazadigan hasharot. Bu o‘rinda Noxum Naynavoga hujum qiladigan lashkarga chigirtkalar to‘dasi deb ishora qiladi. Ammo muallif shu bobning 16-17–oyatlarida Naynavo shahrining a’yonlarini, savdogarlarini va qo‘riqchilarini chigirtkalarga o‘xshatadi.

3:18 *Rahnamolar* — ibroniycha matnda *Cho‘ponlar*. Yo‘lboshchilar va hukmdorlarga nisbatan qo‘llangan she’riy usul.

XABAQQUQ

PAYG‘AMBARNING KITOBI

Kirish

Xabaqquq payg‘ambar Yahudo yurtining qulashi arafasida faoliyat ko‘rsatgan. Bobilliklar miloddan oldingi 605 yilda Yahudo yurtiga hujum qilishgan*.

Kitobning birinchi va ikkinchi boblarida Xabaqquq payg‘ambar bilan Xudo o‘rtasidagi suhbat bayon qilinadi. Xabaqquq payg‘ambar adolatsizlik va jinoyatlarga to‘lib–toshgan Yahudo yurti* haqida Xudoga shikoyat qiladi. Shunda Xudo Xabaqquqqa O‘z rejasini ayon qilib, Yahudo xalqini Bobilliklar orqali jazolamoqchi ekanini aytadi. Lekin Xabaqquq bunga e’tiroz bildiradi. Yahudo xalqidan besh battar gunohkor bo‘lgan Bobilliklarni Xudo jazo vositasi sifatida ishlatishini Xabaqquq hech tushunmaydi. Bu unga adolatsizlikday tuyuladi. Biroq Xudo Xabaqquqqa javob berib, vaqti kelib Bobilliklarni ham jazolashini aytadi.

Xudodan javob olgan Xabaqquq payg‘ambar Xudoga bo‘lgan ishonchini e’lon qilib, kitobni go‘zal qo‘shiq bilan yakunlaydi. U Xudoga shukronalar aytib, Xudoning beqiyos qudrati va ulug‘vorligiga hamdu sanolar kuylaydi.

1–BOB

1 Xabaqquq payg‘ambarga vahiy orqali ayon bo‘lgan bashorat.

Xabaqquq Xudoga adolatsizlikdan shikoyat qiladi

2 Ey Egam, qachongacha Sendan yordam so‘rab yolvoraman?! Menga quloq solasanmi o‘zi?! Qachongacha: “Zo‘ravonlikdan qutqar!” deb iltijo qilaveraman?! Bizga najot berasanmi o‘zi?! 3 Nima uchun nohaqlikka qarab turishim kerak?! Bunday haqsizlikka qanday chiday olyapsan?! Atrofimga nazar solsam, zo‘ravonligu talonchilikni ko‘raman. Janjal va urush avj olmoqda. 4 Oqibatda qonun o‘z kuchini yo‘qotdi, adolat esa poymol bo‘ldi. Fosiqlar solihlardan baland kelgani uchun nohaq hukm chiqarilyapti.

Xudo Xabaqquqqa javob beradi

5 Atrofdagi xalqlarga nazar solinglar! Ularga yaxshilab qaranglar! Ko‘rganingizdan hayratda qolasizlar. Sizning davringizda Men shunday bir ish qilamanki, agar eshitsangiz qulog‘ingizga ishonmaysizlar. 6 Mana, Men Bobilliklarni* g‘oyat kuchaytirmoqdaman. Bu xalq shafqatsiz va tajovuzkordir. Ular dunyoning har tomoniga yurish qiladilar, o‘zga yurtlarni bosib oladilar. 7 Hammani qo‘rquv, vahimaga soladilar. O‘ziga xon, o‘ziga bek bo‘lgan takabburdir ular. 8 Ularning otlari qoplondan chaqqon, kechasi izg‘iydigan bo‘rilardan xavfli. Otliqlari uzoqdan otlarini yeldirib kelishadi, o‘ljasiga tashlanadigan burgut kabi uchib kelishadi.

9 Ularning to‘dalari zo‘ravonlik maqsadida kelishadi. Ular sahrodan keladigan quyun kabi bo‘lib, qum yiqqanday asirlarni yig‘ishadi. 10 Shohlarni mazaxlashadi, hukmdorlarni masxara qilishadi. Mustahkam shaharlar ustidan kulishadi. O‘sha shaharlar devorlariga

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

qiyalatib tuproq uyadilar*. Ularni qo‘lga kiritadilar. 11 So‘ng shamol kabi tez o‘tib
ketishadi. Ular o‘z kuchini xudo deb biladilar, shuning uchun jazodan qocha olmaydilar.

Xabaqquq Xudoga yana shikoyat qiladi

12 Ey Egam Xudo, Muqaddas Xudoyim! Doimo mavjud bo‘lgan Xudo Sen emasmi?!
Shunday ekan, Bobilliklar dastidan biz yo‘q bo‘lib ketmaymiz. Ey Egam! Sen, hukmimni
amalga oshirsin, deb Bobilliklarni tanlading. Ey suyangan Qoyam! Sen, xalqimni
jazolasin deb, ularni tayinlading. 13 Sening ko‘zlaring shu qadar pokizaki, Sen yovuzlikka
qarab turolmaysan. Haqsizlikka chiday olmaysan. Hayronman, qanday qilib bu makkor
odamlarga chidab yuribsan?! Bu qabihlar o‘zlaridan solihroq xalqni yamlab yutyapti–ku,
qanday qilib ularga indamay jim turibsan?!
14 Sen odamlarni dengizdagi baliqlar kabi qilding, yo‘lboshchisi bo‘lmagan dengiz
maxluqlariga o‘xshatib qo‘yding. 15 Bobilliklar odamlarni o‘z qarmog‘iga ilintiradilar.
To‘r tashlab baliq ovlaganday ularni ovlaydilar. Yoyma to‘rlariga* tushirib, qirg‘oqqa
tortib chiqaradilar. Ovini ko‘rgach, xursand bo‘lib sevinadilar. 16 Ha, to‘rlari tufayli ular
mo‘l o‘lja oladilar, sara taomlardan tanovul qiladilar. Shuning uchun to‘rlariga atab
qurbonliklar keltiradilar, yoyma to‘rlariga atab tutatqilar tutatadilar*.
17 Qachongacha ular to‘rlari bilan ellarni ovlaydilar?! Qachongacha xalqlarni
shafqatsiz nobud qiladilar?!

2–BOB

1 Men minoraga chiqib olaman. Shahar devoridan olislarga qarab, Egamning javobini
kutaman. Shikoyatimga javob berganda, Unga nima aytishimni o‘ylab ko‘raman*.

Xudo Xabaqquqqa javob beradi

2 Egamiz menga shunday javob berdi: “Senga ayon qilgan so‘zlarimni tosh lavhalarga
aniq qilib yoz, yugurib ketayotgan odam uni bir qarashdanoq o‘qiy oladigan bo‘lsin.
3 Bashorat belgilangan vaqtda amalga oshadi. O‘sha vaqt hademay yetib keladi, bashorat
ro‘yobga chiqadi. Bordi–yu, u kechikadigan bo‘lsa, sabr qilgin. U albatta bajo bo‘ladi,
kech qolmaydi.
4 Menga qara! To‘g‘ri yo‘ldan yurmaganlar halok bo‘ladi*. Solihlar esa Xudoga bo‘lgan
sadoqati* tufayli tirik qoladi.”

Xabaqquq fosiqlarning jazo olishini e’lon qiladi

5 Boylik* aldamchidir. Boylar takabburdirlar, ular hech qachon tinib–tinchimaydilar.
Ular o‘liklar diyori kabi ochko‘z, o‘lim kabi to‘ymaydilar. Ular xalqlarni o‘zlariga tobe
qilishadi, ellarni qo‘l ostiga olishadi. 6 Asirlikka tushganlar ularni nafratomuz mazax
etadilar, masxara qilib, shunday aytadilar:

> “Ey birovning boyligini talab, uyum qilganlar, sizning holingizga voy! Sizlar
> birovning narsasini qaytarmay, qarzlaringizni* orttirib yuribsizlar. Bunday hol
> uzoqqa cho‘zilarmidi?! 7 Qarzlaringizni qistaydiganlar to‘satdan paydo bo‘ladi.
> Ular kelib, sizlarni dahshatga solishadi. Shunda sizlar ular uchun o‘lja bo‘lasizlar.
> 8 Sizlar ko‘p xalqlarni taladingiz. Odamlarning qonini to‘kdingiz, yurtlaru
> shaharlarni vayron qilib, u yerdagilarni nobud qildingiz. Shuning uchun omon
> qolgan xalqlar endi sizlarni talon–taroj qiladilar.

9 Ey harom yo‘l bilan boylik topib, uyiga tashiganlar, sizning holingizga voy!
Sizlar uylaringizni balandlikda qurib, o‘zingizni kulfat changalidan asramoqchi
bo‘ldingiz. 10 Ammo hiylalaringiz xonadoningizni sharmanda qildi. Sizlar ko‘p
xalqlarni nobud qilganingiz uchun o‘z boshingizga yetdingiz. 11 Hatto uyingiz
devoridagi toshlar zo‘ravonligingizdan dod soladi. To‘sinlarning nolasi aks sado
bo‘lib chiqadi.
12 Ey qotillik ila shaharlar qurganlar, holingizga voy! Ey zo‘ravonlik ila
qo‘rg‘onlarga asos solganlar, holingizga voy! 13 Ellar behuda tinkasini quritadi.
Xalqlarning ter to‘kib erishganlari olovga yem bo‘ladi. Bu Sarvari Olamning ishi
emasmi?!

14 Ha, suvlar to‘ldirganday dengizni,
Yer yuzi to‘liq bilib oladi Egamizning ulug‘vorligini.

15 Ey qo‘shni xalqlarga sharobni zo‘rlab ichirganlar, holingizga voy!
Yalang‘och badanlarini tomosha qilaylik deb, ularga g‘azabingiz sharobidan*
ichirdingiz. Ularni mast qildingiz. 16 Biroq sizlar obro‘ topmay o‘zingiz
sharmandalikdan mast bo‘lasizlar. Qani, iching! Yalang‘och tanangizni ko‘rsating!
Ana, Egamizning o‘ng qo‘lidagi jazo kosasi sizlarga yetib keldi! Obro‘yingiz
to‘kilib, sharmandangiz chiqadi. 17 Ha, Lubnonda qilgan zo‘ravonligingiz* o‘z
boshingizga yetadi. U yerda yovvoyi hayvonlarni qirdingiz, endi hayvonlar
sizlarni dahshatga soladi. Chunki sizlar yurtlaru shaharlarni vayron qildingiz.
Odamlarning qonini to‘kib, ularni nobud qildingiz.

18 Inson yasagan butdan ne foyda?! Sanamning foydasi bormi yolg‘ondan
boshqa?! Nega odam o‘zi yasagan narsasiga umidini bog‘laydi?! Nega tili yo‘q bir
butni yasaydi?! 19 Holingizga voy, ey bir parcha yog‘ochga «Uyg‘on!» deganlar!
Holingizga voy, ey tilsiz toshga «Tur!» deb yolvorganlar! But sizga to‘g‘ri yo‘l
ko‘rsatarmidi?! Oltinu kumush bilan qoplangan butning joni bormidi?!

20 Egamiz esa O‘zining muqaddas Ma’badidadir.
Uning oldida butun dunyo sukut saqlasin!”

3–BOB

Xabaqquq ibodat qiladi, vahiyda Xudoni ilohiy jangchi timsolida ko‘radi

1 Xabaqquq payg‘ambarning kuyga solingan ibodati quyidagicha:

2 “Ey Egam, men Sening shuhrating haqida eshitdim. Qilgan buyuk ishlaringdan
hayratda qoldim. Ey Egam, bizning davrimizda ham shunday ishlaringni qilgin. Odamlar
Sening nimalarga qodir ekanligingni bilib qo‘yishsin. G‘azablanganingda mehr–shafqatni
esdan chiqarmagin.

3 Xudo keladi Edom yurtidan*,
Muqaddas Xudo keladi Poron qirlaridan*.
Uning ulug‘vorligi ko‘kni porlatar,

Hamdu sanolariga butun dunyo to‘lar.
4 Ulug‘vorligi chaqmoqday chaqnar,
Nur sochilar Uning qo‘lidan —
Kuch yashiringan bilagidan.
5 Uning oldida yuradi o‘lat,
Uning ketidan ergashadi ofat.
6 To‘xtaganda yer silkinadi,
Nazar solganda xalqlarni titroq bosadi.
U yurgan ko‘hna yo‘llar bo‘yidagi
Mangu tog‘lar o‘pirilib tushadi,
Abadiy qirlar cho‘kib past bo‘ladi.
7 Ko‘shon xalqining qo‘rqqanini men ko‘ryapman,
Midiyon* xalqining dag‘–dag‘ qaltiraganini ko‘ryapman.

8 Ey Egam, nahotki g‘azablansang daryolardan?!
Nahot Sening jahling chiqsa irmoqlardan?!
Yoki Sening qasding bormidi dengizdan?!*
Shuning uchun otlaringni choptirasanmi,
Zafarli jang aravalaringga minib olasanmi?!
9 Sen g‘ilofdan chiqarasan kamoningni,
O‘qlarga to‘ldirasan o‘qdoningni.
Daryolar bilan yorasan yer yuzini.
10 Buni ko‘rganda tog‘larni dard tutar,
Shiddatli oqim ko‘pirib oqar.
Dengiz tubidan nido yangrar,
Dengiz to‘lqinlari ko‘kka intilar.
11 Sening o‘qlaring uchib chaqnaydi,
Nayzalaring yalt etib yonadi.
Bundan quyoshu oy o‘z joyida qotib turadi*.
12 Sen jahl ustida bosib o‘tarsan yer yuzini,
G‘azabga minib oyoq osti qilarsan xalqlarni.
13 Qutqarish uchun kelasan O‘z xalqingni,
O‘z tanlaganing orqali ozod qilish uchun ularni*.
Fosiq xalqning yo‘lboshchisini urasan,
Boshdan–oyoq uni shilib tashlaysan.
14 Ana, g‘animlarimiz quyun kabi kelyaptilar,
Bizni har yoqqa tarqatib yubormoqchi bo‘lyaptilar.
O‘z uyasida o‘ljasini g‘ajigan yirtqich hayvonday,
Oson ovidan o‘zida yo‘q sevinyaptilar.
Sen esa ularning yo‘lboshchisini o‘z o‘qlari bilan halok qilasan.
15 Otlaring tuyoqlari dengizni* bosib ezadi,
Bahaybat suvlarni bir joyga yig‘ib qo‘yadi.”

Xabaqquq Xudoga bo‘lgan ishonchini e’lon qiladi

16 Men bularni* eshitdim.
Shunda uvushdi mening yuragim,

Titray boshladi lablarim,
Madorim qolmay, qaltiradi tizzalarim.
Ammo men sabr–toqat qilaman,
Bosqinchilarimiz boshiga tushadigan kulfat kunini kutaman*.
17 Bordi–yu, anjir daraxti gullamay qolsa,
Uzum toklari meva tugmasa,
Zaytun daraxtlari hosil bermasa,
Daladagi ekinlar unmay qolsa,
Qo‘ralarda qo‘ylar qolmasa,
Og‘ilxonalar bo‘m–bo‘sh bo‘lsa,
18 Shunda ham Egamdan shod bo‘larman,
Najotkorim Xudodan quvonarman.
19 Egam Rabbiy mening qudratimdir.
U oyoqlarimni kiyik oyog‘iday qiladi,
Cho‘qqilar uzra meni bexatar yurgizadi.

Ijrochilar rahbariga. Torli asboblar jo‘rligida.

IZOHLAR

Bobilliklar…Yahudo yurtiga hujum qilishgan — 4 Shohlar 24:1-4, Doniyor 1:1-7 ga qarang.

Yahudo yurti — janubiy shohlik nazarda tutilgan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi YAHUDO so‘ziga qarang.

1:6 *Bobilliklar* — ibroniycha matnda *Xaldeylar*, o‘sha vaqtda Bobilliklar shu nom bilan ham atalardi.

1:10 *O‘sha shaharlar devorlariga qiyalatib tuproq uyadilar* — qadimgi davrlarda dushmanlar devor bilan o‘ralgan shaharga hujum qilayotganlarida, ko‘pincha devorga qiyalatib tuproq uyganlar. Shu yo‘l bilan ular shaharni himoya qilayotgan xalqqa hujum qilish uchun devorni buzishga yoki oshib o‘tishga qulay imkoniyat yaratganlar.

1:15 *To‘r…Yoyma to‘rlari…* — Xabaqquq baliq ovlashda ishlatiladigan ikki xil to‘r haqida so‘z yuritib, Bobil lashkarining qudratini tasvirlaydi. Bu bilan u Bobil lashkaridan qochib–qutulishning iloji yo‘qligini ko‘rsatmoqchi. Matnda ishlatilgan to‘rlarning birinchisi dumaloq shaklda bo‘lib, atrofiga toshlar bog‘lanar edi. Bunday to‘rdan bitta baliqchi foydalansa ham bo‘lardi. Ikkinchi to‘rning shakli esa uzun to‘rtburchak edi. Bu to‘rning pastki tomoniga toshlar bog‘lanar edi. Bunday to‘rni bir nechta baliqchilar suvga otib, uni ikki tarafidan qirg‘oq tomon tortib baliq ovlashardi.

1:16 *…to‘rlariga atab qurbonliklar keltiradilar, yoyma to‘rlariga atab tutatqilar tutatadilar* — bu jumla majoziy ma’noni ifodalab, Bobilliklar o‘z lashkarining kuch–qudratiga va harbiy salohiyatiga xudoga sig‘inganday sig‘inganlarini ko‘rsatadi (shu bobning 11–oyatiga qarang).

2:1 *Shikoyatimga javob berganda, Unga nima aytishimni o‘ylab ko‘raman* — ibroniycha matndan. Qadimiy suryoniycha tarjimada *Qani ko‘ray–chi, U mening shikoyatimga qanday javob berarkan*.

2:4 *Menga qara! To‘g‘ri yo‘ldan yurmaganlar halok bo‘ladi* — yoki *Takabburlarga bir qara! Ular egri yo‘llardan yurmoqda*.

2:4 *Xudoga bo‘lgan sadoqati* — yoki *imoni*.

2:5 *Boylik* — Qumron qo‘lyozmalaridan. Ibroniycha matnda *Sharob*.

2:6 *qarzlaringiz* — majoziy ma’noda ishlatilgan bu so‘z boshqalardan zo‘ravonlik bilan tortib olingan narsalarga ishora qiladi. Zo‘ravonlar xuddi boshqalardan qarz olaverib, o‘zining boshiga kulfat keltiradigan odamlarga o‘xshaydi. Mana shu zo‘ravonlar, bir kun kelib, qilmishlari uchun jazo oladilar.

2:15 *g‘azabingiz sharobi* — bu o‘rinda sharob Xudo g‘azabining ramzi bo‘lib, sharobdan mast bo‘lish Xudoning hukmiga duchor bo‘lishni bildiradi. Sharob ichaverib mast bo‘lib qolgan inson ba’zan Xudoning g‘azabi ostida qolgan insonning timsoli edi (Ishayo 51:17-23, Yeremiyo 25:15-29 ga qarang). Mazkur oyatda Xabaqquq bu timsolni Bobilning boshqa xalqlarga bo‘lgan g‘azabini — ularni xo‘rlaganini va yurtlarini vayron qilganini ifodalash uchun ishlatgan. Ammo shu bobning 16–oyatida Xabaqquq bu timsol orqali Bobilni ogohlantirib, Xudo ularni jazolaydigan vaqt kelishini aytadi.

2:17 *Lubnonda qilgan zo‘ravonligingiz* — Lubnon tog‘lari o‘zining katta sadr daraxtlari va go‘zal tabiati bilan mashhur edi (Qonunlar 3:25, Zabur 103:16-17 ga qarang). Bobilliklar o‘sha daraxtlarning ko‘pini kesib tashlagan edilar (Ishayo 14:3-8 ga qarang).

3:3 *Edom yurti* — ibroniycha matnda *Temon*, Edom yurtining shimoliy qismidagi muhim shahar. Bu o‘rinda Temon Edomning she’riy nomi sifatida ishlatilgan (Hakamlar 5:4-5 ga qarang).

3:3 *Poron qirlari* — Sinay yarim orolining sharq tomonidagi, Qizil dengizning Aqaba qo‘ltig‘i bo‘yidagi yerlar. Oyatdagi Edom va Poron nomlari Yahudo xalqiga o‘z tarixini eslatadi (Qonunlar 33:2 ga qarang). Xudo ularning ota–bobolarini Misrdan Sinay tog‘iga olib borib, o‘sha yerda — Poron qirlari yaqinida ularga o‘nta amrni bergan edi. Shundan keyin Xudo ularni Edom yurti orqali shimol tomonga, Kan’on yurtiga boshlab bordi va ularga o‘sha yurtni bosib olishlariga yordam berdi. Bu yurtni Xudo Ibrohimga va uning nasliga va’da qilgan edi. Muallif shu bobning 3-15–oyatlarida bayon qilgan vahiy orqali Yahudo xalqiga, Xudo sizlarning ota–bobolaringizga o‘tmishda qanday madad bergan bo‘lsa, sizlarga ham shunday qiladi, deya dalda beradi.

3:7 *Ko‘shon…Midiyon…* — Sinay yarim orolida yashagan ikki xalqqa ishora qilingan bo‘lishi mumkin. Muso davrida Isroil xalqi Misrdan chiqqan paytda atrofdagi xalqlar qo‘rquvga tushgan edilar (Chiqish 15:13-16, Yoshua 2:8-11 ga qarang). Ko‘shon va Midiyon nomlari hakamlar davrida yashagan ikkita xalqni ham bildirishi mumkin. Xudo ular orqali Isroil xalqini gunohlari uchun jazolagan, keyinchalik esa ularning o‘zlarini ham jazolagan edi (Hakamlar 3:8-11, 6:1-6, 7:9-25 ga qarang). Xudo Bobil xalqiga nisbatan ham xuddi shu yo‘lni tutgandi. Xudo ular orqali Yahudo xalqini jazolagan, keyinchalik esa Bobilliklarning o‘zlarini ham jazolagan edi.

3:8 *…daryolar…dengiz…* — Nil daryosi, Qizil dengiz va Iordan daryosi nazarda tutilgan bo‘lsa kerak (misol uchun, Chiqish 7:20-24, 14:1-31, Yoshua 3:1-17 ga qarang).

3:11 *…quyoshu oy o‘z joyida qotib turadi* — Yoshua 10:12-14 ga qarang.

3:13 *…O‘z tanlaganing orqali ozod qilish uchun ularni* — yoki *…O‘z tanlaganingni ozod qilish uchun*. Bu o‘rinda *O‘z tanlaganing* deb tarjima qilingan ibroniycha so‘z Eski Ahdda ko‘pincha Xudo tomonidan tanlangan shoh va qutqaruvchiga ishora qiladi. Bobilni bosib olgan Fors shohi Kurushga nisbatan ham shu ibroniycha so‘z ishlatilgan (Ishayo 45:1 ga qarang, yana Ishayo 41:2 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang).

3:15 *dengiz* — Chiqish 14:1-31 ga qarang.

3:16 *bular* — shu bobning 3-15–oyatlarida bayon etilgan vahiyga yoki 1:5-11 dagi xabarga ishora.

3:16 *Ammo men…kutaman* — yoki *Chunki men jimgina kulfat kutishim kerak, Yurtimizni bosib oladigan xalqning hujumini kutishim kerak*.

ZAFANIYO

PAYG‘AMBARNING KITOBI

Kirish

Zafaniyo payg‘ambar Yahudo yurtida* shoh Yo‘shiyo hukmronligining dastlabki yillarida bashorat qilgan. Uning faoliyati shoh Yo‘shiyo miloddan oldingi 621 yilda o‘tkazgan islohotlardan* avvalgi davrga to‘g‘ri kelgan bo‘lishi mumkin. O‘sha davrda Ossuriya* hamon qudratli shohlik edi. Yeremiyo va Noxum payg‘ambarlar Zafaniyo payg‘ambarning zamondoshlari bo‘lgan.

Zafaniyo payg‘ambar davrida Yahudo xalqi umidini kelajakka bog‘lab, Xudoning qudrati bilan dushmanlarini yer yuzidan yo‘q qilishga chin dildan ishonardi. Ular: “Xudoning adolat o‘rnatadigan g‘alaba kunlarini katta tantana bilan kutib olamiz”, deb niyat qilib, o‘sha davrni “Egamizning kuni” deb atashardi. Zafaniyo payg‘ambar esa xalqni ogohlantirib, “Egamizning kuni”da Xudo itoatsiz bandalarni jazolaydi, deb aytadi. Itoatsiz Yahudo xalqi ham, boshqa xalqlar qatori, qattiq jazo olishini Zafaniyo bashorat qiladi. Biroq shu bilan birga, payg‘ambar Xudoning O‘z xalqiga rahmdil ekanini ta’kidlab o‘tadi. Xalqning achchiq qismatini bashorat qilgan muallif kitobni umidbaxsh so‘zlar bilan yakunlaydi. Quddus kelajakda vayron bo‘lsa ham, vaqti kelib, bu tabarruk shahar yana tiklanadi, u yerni mo‘min–qobil, solih odamlar makon qiladi, deb ishonch bilan ta’kidlaydi Zafaniyo payg‘ambar.

1–BOB

1 Yahudo yurtida* Omon o‘g‘li shoh Yo‘shiyo hukmronlik qilgan davrda* Zafaniyoga
Egamiz O‘z so‘zini ayon qildi. Zafaniyo shoh Hizqiyo* avlodidan bo‘lib, Kushining o‘g‘li,
Gadaliyoning nevarasi va Emoriyoning evarasi edi.

Yahudo xalqi jazo oladigan kun yaqinlashib kelmoqda

2 Egamiz shunday demoqda:
“Men yer yuzidagi hammani
Gard qoldirmay supurib tashlayman.
3 Ha, Men odamlaru hayvonlarni,
Ko‘kdagi qushlaru
Dengizdagi baliqlarni supurib tashlayman.
O‘sha hayvonlar tasviridagi butlarni* parchalayman.
Ular qatorida fosiqlarni ham yo‘q qilaman,
Yer yuzidagi butun inson zotini
Ildizidan quritib yuboraman.
— Egamizning kalomi shudir. —

4 Men Yahudo va Quddusga qarshi qo‘l ko‘taraman.
Baalga* sig‘inganlarni bitta qoldirmay yo‘q qilaman,
Butparast ruhoniylarni odamlarning xotirasidan o‘chiraman.

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

5 Tomda quyosh, oy, yulduzlarga sig‘inganlarni halok qilaman,
To‘g‘ri, ular Men, Egangizga sajda qilib, sadoqat ontini ichadi,
Lekin Mo‘laxga* ham topinib, va’dalar berishadi.
6 Men, Egangizdan yuz o‘girgan,
Izimdan yurmagan bu odamlar nobud bo‘ladi,
Menga intilmagan, Mendan yordam so‘ramaganlar o‘ladi.”

7 Egamiz Rabbiy oldida sukut saqlang!
Zero, Egamizning kuni* yaqinlashib qoldi.
Egamiz O‘z xalqini qurbonlik qilishga tayyorladi.
U taklif qilgan mehmonlar yetib keldi.
8 Egamiz shunday deydi:
“Men qurbonlik keltiradigan o‘sha kuni
Yahudo a’yonlarini, shohning o‘g‘illarini,
Butparastlik odatlariga berilganlarning hammasini* jazolayman.
9 Butparastlarga o‘xshab ostona hatlaganlarning*
Ta’zirini beraman.
Shoh saroyini
Zo‘ravonligu firibgarlikka to‘ldirganlarni* jazolayman.”

10 Egamiz shunday demoqda:
“O‘sha kuni Quddusning Baliq darvozasidan* faryod ko‘tariladi,
Shaharning Yangi dahasidan dod–voy eshitiladi.
Qirlardan vayronagarchilik sadolari keladi.
11 Ey bozor ko‘chasida yashaydiganlar, dod soling!
Axir, hamma savdogarlaringiz halok bo‘ladi,
Oldi–sotdi qilganlar qirib tashlanadi.
12 Men o‘sha kuni bir chiroq olaman,
Quddusning har bir burchagini tekshirib chiqaman.
«Egamizning qo‘lidan na yaxshilik,
Na yomonlik keladi», deb o‘ylaganlarning jazosini beraman.
Gunohga botib o‘tirgan
Beparvo odamlarni jazolayman.
13 Ular uylar qurishadi,
Ammo uylarida yashash ularga nasib etmaydi.
Uzumzorlar barpo qilishadi,
Ammo sharobidan ichisholmaydi.
Boyliklari talon–taroj qilinadi,
Qurgan uylari buzib tashlanadi.”

14 Oz qoldi Egamizning buyuk kuniga! Oz qoldi!
O‘sha kun shiddat bilan yaqinlashmoqda.
Quloq soling! Bu Egamizning kunidir.
Bu kun achchiq kulfat keltiradi,
Hatto jasur jangchilar qo‘rqqanidan baqiradi.

15 Bu kun Xudoning g‘azab kunidir.
O‘sha kuni hamma azob–uqubat chekadi,
Hamma yoq vayronayu xarobazorga aylanadi.
Zimziyo zulmat kuni bo‘lar o‘sha kun,
Bulut qoplagan tim qorong‘i bo‘lar o‘sha kun!
16 Mustahkam shaharlaru baland minoralar
Hujum ostida qoladi,
Burg‘u ovoziyu jangga da’vat tovushlarini
O‘sha kun o‘zida mujassam etadi.

17 Egamiz shunday deydi:
“Odamlar Menga qarshi gunoh qildilar,
Shu sababdan Men ularning boshiga kulfat solaman,
Ular ko‘r odamday qoqilib yuradilar.
Ularning qoni to‘kilib, yerni qoplaydi,
Jasadlari tilka–pora bo‘lib, yerda go‘ngday yotadi.”

18 Egamizning g‘azab kunida
Kumush ham, oltin ham ularga najot bermaydi.
Egamizning rashk* o‘ti
Butun dunyoni kuydirib tashlaydi.
Ha, yer yuzida yashagan hammani
Egamiz dahshatli tarzda yo‘q qiladi.

2–BOB

Zafaniyo xalqni tavba qilishga chorlaydi

1 Esingni yig‘ib olgin,
Ey sharmanda xalq!*
2 Shamol uchiradigan somonday
Yo‘q bo‘lib ketmasingdan oldin*,
Egamizning alangali qahriga
Uchramasingdan oldin,
Egamizning g‘azab kuni kelmasdan oldin
Esingni yig‘ib olgin!
3 Egamizning amrlariga itoat qiladigan,
Ey yurtning kamtarin odamlari,
Egamizga intilinglar.
To‘g‘rilikka bog‘lanib,
Mo‘min–qobillik payida bo‘linglar.
Shundagina Egamizning g‘azab kunida
Jazodan qutulib qolishingiz mumkin.

Yahudoning yon–atrofidagi xalqlarni Egamiz hukm qiladi

Filist xalqi

4 G‘azo shahri* huvullab qoladi,

Ashqalon shahri vayron bo‘ladi.
Ashdod aholisi kunning tush paytigacha haydab chiqariladi,
Exron shahri tag–tugi bilan yo‘q qilinadi.
5 Ey dengiz qirg‘og‘ida yashayotgan Filist xalqi*,
Sening holingga voy!
Ey Kan’ondagi Filist yurti,
Egamiz senga qarshi shunday deydi:
“Men seni vayron qilaman,
Birontangni ham tirik qoldirmayman.”
6 Ey dengiz qirg‘og‘idagi o‘lka,
Sen dashtga aylanasan.
U yerda cho‘ponlar chodirlar tikadi,
Ular qo‘y–echkilari uchun qo‘ralar quradi.
7 Yahudo* xalqining omon qolganlari
Yurtingga egalik qiladi.
Cho‘ponlari yurtingda qo‘y–echkilarini o‘tlatishadi,
Ular Ashqalondagi tashlandiq uylarda tunashadi.
Axir, Egasi Xudo ularga g‘amxo‘rlik qiladi,
Ularni yana farovonlikka erishtiradi.

Mo‘ab va Ommon xalqi

8-9 Isroil xalqining Xudosi —
Sarvari Olam shunday demoqda:
“Mo‘abliklar xalqimni qanchalik tahqirlaganini,
Ommonliklar* ularni qanchalik xo‘rlaganini,
Xalqimni haqoratlab, yurtiga tahdid solishganini eshitdim.
Shunday ekan, Men barhayot Xudo bo‘lganim haqi aytamanki,
Mo‘ab yurti Sado‘m shahrining holiga tushadi,
Ommon yurti G‘amo‘ra shahriga* o‘xshab qoladi.
O‘sha yurtlar sho‘r bosgan tikanzorlarga aylanadi,
To abad tashlandiq joylar bo‘lib qoladi.
Xalqimning omon qolganlari ularni talon–taroj qiladi.
Yurtlarini o‘zlariga mulk qilib olishadi.”

10 Ular Sarvari Olamning xalqini mazax qilganlari uchun,
Kekkayib, mag‘rurlanganlari uchun
Bu ko‘rgiliklar boshlariga tushadi.
11 Egamiz ularni vahimaga soladi,
Yer yuzidagi jamiki xudolarni yo‘q qiladi.
Shunda dengiz qirg‘og‘idagi ellar
Egamizga sajda qilishadi.
Har biri o‘z yurtida Egamizni madh etadi.

Habashistonliklar

12 Ey Habashistonliklar*,
Egamiz sizlarni ham qilichi bilan o‘ldiradi.

Ossuriya xalqi

13 Egamiz shimolga qarshi qo‘l ko‘taradi,
U Ossuriyani* yo‘q qiladi.
Naynavo shahrini* vayron qiladi,
Uni suvsiz sahroga aylantiradi.
14 U yerda chorva o‘tlab yuradigan bo‘ladi,
Har xil yovvoyi hayvonlar orom oladi.
Saroy vayronalarida boyo‘g‘li yashaydi,
Oynalaridan uning tovushi eshitiladi.
Ostonalarida xarobalar uyum–uyum bo‘lib yotadi.
Binolarining sadr yog‘ochlari shilib olinadi.
15 Bexatar yashayotgan manman shahar shu ko‘yga tushadi!
“Menga teng keladigani yo‘q”, deb aytayotgan shaharning holi shu bo‘ladi!
Xarob bo‘lgan bu shahar
Yovvoyi hayvonlarning makoniga aylanadi.
Vayronalar oldidan o‘tgan–ketganlar
Undan hazar qilib, yerga tupurib ketishadi.

3–BOB

Quddusning gunohi va itoatsizligi

1 Bulg‘angan, buzuq shaharning holiga voy!
Zolimlarga to‘lib ketgan shaharning holiga voy!
2 U hech kimning gapiga quloq solmaydi,
O‘ziga hech qanday saboq olmaydi.
O‘z Xudosi tomon yuz burmaydi,
Umidini Egamizga bog‘lamaydi.
3 Shahar a’yonlari o‘kirayotgan sherlarga o‘xshaydi.
Hakamlari ham kechasi och qolgan bo‘rilarga o‘xshab,
Ertalabgacha o‘ljasidan hech narsa qoldirmaydi.
4 Payg‘ambarlari katta ketadi,
Hammasi qalloblik qiladi.
Ruhoniylari Xudoning uyini harom qiladi,
Xudoning qonunini buzadi.
5 Ammo Egamiz hamon shahardadir.
U doimo to‘g‘ri ish qiladi,
U nohaqlik qilmaydi aslo!
U har kuni ertalabdan adolat o‘rnatadi,
Tong sahardan odillik bilan ish tutadi,
Fosiqlar esa uyalmay yomonlik qilaveradi.

6 Egamiz shunday deydi:
“Men xalqlarni qirib tashladim,
Ularning shaharlarini vayron qildim,
Qal’alarini qulatdim.

Ana, ko‘chalari huvullab qoldi,
Shaharlarida inson zoti qolmadi.
7 Endi xalqim Mendan qo‘rqar,
Bundan o‘ziga saboq olar, deb o‘ylagan edim.
Quddusni vayron qilmayman,
Aytganlarimni boshiga solmayman, degan edim.
Ammo ular shunda ham,
Qabihliklar qilish ishtiyoqidan voz kechmadilar.”

Xalqlar Egamizga yuz buradi

8 Egamiz shunday demoqda:
“Mening kelishimni kutinglar,
Men xalqlarga hamla qilib,
Ularni talon–taroj qiladigan kunni kutinglar.
Men qaror qildim: xalqlarni yig‘aman,
Barcha ellarni to‘plab olaman.
Ularning ustiga g‘azabimni sochaman,
Alangali qahrimni ularga yog‘diraman.
Rashkim o‘ti butun dunyoni kuydirib tashlaydi.

9 Keyin Men barcha xalqlarning nutqini o‘zgartiraman,
Shunda ular butlarga iltijo qilishmaydi*,
Faqat Men, Egangizgagina ibodat qilishadi.
Birgalikda Menga xizmat etishadi.
10 Olis yurtlardan ixlosmandlarim kelishadi,
Habashistondagi* daryolarning narigi tomonidan,
Menga nazrlar olib kelishadi.

11 Ey xalqim, o‘sha kuni sizlar uyalib qolmaysizlar,
Oldinlari Menga bo‘ysunmaganingizdan o‘shanda xijolat tortmaysizlar.
Axir, Men orangizdagi takabbur odamlarni yo‘q qilaman.
Shunda muqaddas tog‘imda* o‘zlaringizni katta tutmaydigan bo‘lasizlar.
12 Men faqat kamtarin va itoatkor odamlarni qoldiraman.
Ular Men, Egangizdan panoh topadilar.
13 Isroil* xalqining omon qolganlari
Hech yomonlik qilmaydilar.
Ular hech kimni aldamaydilar,
Og‘izlaridan yolg‘on so‘z chiqmaydi.
Ular yaylovda o‘tlab yurgan qo‘ylarday orom oladilar,
Hech kim ularni bezovta qilmaydi.”

Sevinch qo‘shig‘i

14 Ey Isroil xalqi, sevinch ila hayqiring!
Ey Quddus aholisi, kuylang!
Ey Sion* ahli, butun qalbingizdan shodlaning!
15 Egamiz sizlarni jazolab bo‘ldi,

Dushmanlaringizni U quvib yubordi.
Isroilning Shohi — Egamiz orangizdadir.
Siz endi kulfatdan qoʻrqmang.
16 Oʻsha kuni Quddusga shunday soʻzlar aytiladi:
“Ey Sion aholisi, qoʻrqmang! Aslo boʻshashmang!
17 Egangiz Xudo sizning orangizdadir,
Sizga zafar keltiruvchi jangchi Oʻshadir.
U sizni deb xursand boʻlib sevinadi.
Oʻz sevgisi ila qoʻrquvlaringizdan xalos qiladi*.
Ha, sizni deb shod boʻlib kuylaydi.”

18 Egamiz shunday deydi:
“Ey surgun boʻlganlar,
Tayinlangan bayramlarda
Sizlar qatnasha olmaganingizdan xafasizlar,
Men sizlarni oʻz yurtingizga olib kelaman,
Bundan buyon xor boʻlishingizga yoʻl qoʻymayman.
19 Sizlarga zulm oʻtkazgan xalqlar bilan
Oʻshanda Oʻzim hisob–kitob qilaman.
Men choʻloqlarni qutqaraman,
Haydab yuborilganlarni yigʻib olaman.
Ular sharmanda boʻlgan har bir yurtda
Obroʻ va shuhrat topadilar.
20 Ha, oʻsha vaqtda sizlarni yigʻib olaman,
Uylaringizga eltib qoʻyaman.
Sizlarni yana farovonlikka erishtiraman,
Buni oʻz koʻzingiz bilan koʻrasiz,
Xalqlarning hurmatu maqtovlariga sazovor boʻlasiz.”

Egamizning kalomi shudir.

IZOHLAR

Yahudo yurti — janubiy shohlik nazarda tutilgan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi YAHUDO so‘ziga qarang.

shoh Yo‘shiyo…o‘tkazgan islohotlar… — 4 Shohlar 23:1-28 ga qarang.

Ossuriya — qadimgi qudratli shohlik. Uning poytaxti Naynavo shahri hozirgi Iroqning shimolida joylashgan edi. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi OSSURIYA so‘ziga qarang.

1:1 *Yahudo yurti* — janubiy shohlik nazarda tutilgan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi YAHUDO so‘ziga qarang.

1:1 *…shoh Yo‘shiyo hukmronlik qilgan davr…* — miloddan oldingi 640-609 yillar.

1:1 *shoh Hizqiyo* — ibroniycha matnda *Hizqiyo*. Bu o‘rinda miloddan oldingi 716-687 yillarda hukmronlik qilgan Yahudo shohi nazarda tutilgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, Zafaniyo shoh Yo‘shiyoning qarindoshi bo‘lgan.

1:3 *O‘sha hayvonlar tasviridagi butlar* — ibroniycha matnda *Qoqiltiradigan toshlar*. Mazkur oyatda bu ibroniycha ibora butlarga ishora qilishi mumkin (Qonunlar 4:15-18, 35-26 ga qarang).

1:4 *Baal* — Kan’ondagi xalqlar sajda qilgan hosildorlik xudosi bo‘lib, erkak qiyofasida tasavvur qilingan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi BAAL so‘ziga qarang.

1:5 *Mo‘lax* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Malkam*. Mo‘lax Ommon xalqining xudosi edi. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi MO‘LAX so‘ziga qarang.

1:7 *Egamizning kuni* — Eski Ahddagi payg‘ambarlar bitiklarida bir necha marta uchraydigan ibora. Ko‘pincha bu ibora Xudo beradigan jazoga ishora qiladi. Bu ibora yana qiyomat kunidagi Xudoning hukmiga nisbatan ham ishlatiladi. O‘sha kuni Xudo O‘z dushmanlari ustidan g‘alaba qozonadi va ularni jazolaydi, O‘ziga sodiq qolganlarga esa orom bag‘ishlaydi, ularga tinchlik va qut–barakalar ato qiladi.

1:8 *Butparastlik odatlariga berilganlarning hammasi* — ibroniycha matnda *Ajnabiy kiyim kiyganlarning hammasi*. Mazkur oyatda bu ibroniycha ibora butparastlarning urf–odatlariga amal qilishni bildiradi (4 Shohlar 10:22 ga qarang).

1:9 *Butparastlarga o‘xshab ostona hatlaganlar* — butparastlarning irimiga ishora (1 Shohlar 5:4-5 ga qarang).

1:9 *Shoh saroyini zo‘ravonligu firibgarlikka To‘ldirganlar* — shohning amaldorlari va o‘g‘illariga ishora bo‘lsa kerak (shu bobning 8–oyatiga qarang).

1:10 *Baliq darvozasi* — Quddusning shimol tarafidagi asosiy darvoza.

1:18 *rashk* — Chiqish 34:13-14 ga qarang.

2:1 *sharmanda xalq* — Yahudo xalqiga ishora.

2:2 *Shamol uchiradigan somonday Yo‘q bo‘lib ketmasingdan oldin…* — yoki *Hukm boshlanmasdan oldin, Senga tavba qilish uchun berilgan vaqt somonday uchib ketishidan*

oldin….

2:4 *G‘azo shahri* — Filist xalqi quyidagi beshta shahar–davlatni barpo qilgan edi: G‘azo, Ashdod, Ashqalon, Exron va Gat. Bu shaharlar Filistiyada, O‘rta yer dengizi yaqinida joylashgan edi.

2:5 *Filist xalqi* — ibroniycha matnda *Xaret xalqi*. O‘sha vaqtda Filistlar shu nom bilan ham atalardi. Bu nom Krit so‘zidan olingan bo‘lishi mumkin. Filistlarning ajdodlari Krit orolidan kelgan edilar (Yeremiyo 47:4, Amos 9:7 ga va o‘sha oyatlarning ikkinchi izohiga qarang).

2:7 *Yahudo* — 1:1 ning birinchi izohiga qarang.

2:8-9 *…Mo‘ab…Ommon…* — Mo‘ab O‘lik dengizning sharqida, Ommon Iordan daryosining sharq tomonida joylashgan yurtlar edi.

2:8-9 *…Sado‘m shahri…G‘amo‘ra shahri…* — aholisining o‘ta buzuqligi oqibatida Egamiz vayron qilgan ikkita shahar (Ibtido 18:16-19:28 ga qarang).

2:12 *Habashistonliklar* — ibroniycha matnda *Kushliklar*. Kush degan joy Misrdan janubda bo‘lib, hozirgi Sudan va Efiopiya mamlakatlarining bir qismini o‘z ichiga olgan edi.

2:13 *Ossuriya* — qadimgi qudratli shohlik. Uning poytaxti Naynavo shahri hozirgi Iroqning shimolida joylashgan edi. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi OSSURIYA so‘ziga qarang.

2:13 *Naynavo shahri* — Nineviya nomi bilan ham ma’lum.

3:9 *…ular butlarga iltijo qilishmaydi…* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *…ularning lablari pok bo‘ladi…*. Mazkur jumla xalqlar butlarga ibodat qilmasliklariga va topinmasliklariga ishora qiladi.

3:10 *Habashiston* — ibroniycha matnda *Kush*. Bu joy Misrdan janubda bo‘lib, hozirgi Sudan va Efiopiya mamlakatlarining bir qismini o‘z ichiga olgan edi. Mazkur oyatda Quddusdan uzoqda bo‘lgan joylar nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin.

3:11 *muqaddas tog‘im* — Quddusdagi Sion tog‘iga ishora. Quddusdagi Ma’bad qurilgan tepalik Sion tog‘i deb atalgan. Eski Ahddagi she’riy parchalarda va payg‘ambarlar bitiklarida Sion so‘zi ko‘pincha Quddus shahriga yoki Xudoning xalqiga nisbatan ishlatilgan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi SION so‘ziga qarang.

3:13 *Isroil* — bir paytlar Isroil nomi shimoliy shohlikka nisbatan ishlatilgan (to‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi ISROIL so‘ziga qarang). Zafaniyo davriga kelib, o‘sha shohlik yo‘q bo‘lib ketgan edi. Shu sababdan mazkur oyatdagi bu nom Xudoning jamiki xalqiga ishora qiladi (shu bobning 14, 15–oyatlarida ham bor).

3:14 *Sion* — shu bobning 11–oyati izohiga qarang.

3:17 *O‘z sevgisi ila qo‘rquvlaringizdan xalos qiladi* — yoki *Sizga bo‘lgan sevgisi tufayli U sukut saqlaydi*.

XAGGEY

PAYG‘AMBARNING KITOBI

Kirish

Mazkur kitob miloddan oldingi 520 yilda Xudo Xaggey payg‘ambar orqali yuborgan xabarlardan tashkil topgan to‘plamdir. Miloddan oldingi 538 yilda Fors shohi Kurush bergan farmonga ko‘ra, yahudiylar Bobildan Quddusga qaytib, Ma’badni qayta qurishga kirishadilar*. Biroq ko‘p qarshiliklar sababli qayta qurish ishlari to‘xtab qoladi*.

Miloddan oldingi 520 yilgacha yahudiylarning aksariyat qismi Bobildagi surgundan qaytib keladi. Biroq odamlar Xudoning uyiga e’tiborsiz bo‘lib, faqat o‘z uylarini qurish, shinam qilish bilan ovora bo‘lishadi. Xalqning Xudoga bo‘lgan bunday hurmatsizligi va itoatsizligi ko‘p kulfatlarga sabab bo‘ladi: osmondan shudring tushmaydi, yer hosil bermaydi, yurtda qahatchilik hukm suradi, xalq qashshoqlashadi, qilgan mehnatlari samarasiz bo‘ladi.

Xaggey payg‘ambar beparvo bo‘lgan Yahudo xalqini Ma’badni tiklashga chaqiradi. Zero, shu orqaligina xalq Xudoga o‘zining chin hurmati va e’tiborini namoyon qila olardi. Xalq Ma’badni qurishni boshlagandan keyin, Xudo ularga baraka berishni va yurtiga farovonlik ato etishni va’da qiladi.

1–BOB

Ma’badni qaytadan qurish to‘g‘risida Egamizning amri

1 Shoh Doro hukmronligining ikkinchi yili* oltinchi oyining* birinchi kuni edi.
Egamiz Xaggey payg‘ambar orqali Yahudo* hokimi Shaltiyol o‘g‘li Zarubabelga* va oliy
ruhoniy Yohuzadax o‘g‘li Yoshuaga quyidagi so‘zlarini ayon qildi:

2-3 Sarvari Olam shunday demoqda: “Bu xalq: «Egamizning uyini qurish vaqti
hali kelgani yo‘q», deb aytadi. 4 Ey Isroil xalqi, Mening uyim vayron bo‘lib
yotganda*, sizlar hashamatli uylarda yashashingizning vaqtimi?!” 5 Mana endi
Sarvari Olam demoqda: “O‘z ahvolingizga qarab, yaxshilab o‘ylab ko‘ringlar–chi!
6 Ko‘p ekib, kam o‘rasiz. Ovqat yeysiz–u, to‘ymaysiz. Ichasiz, ammo chanqog‘ingiz
qonmaydi, ustingizga kiyasiz–u, isinolmaysiz. Kim pul ishlasa, uning puli yirtiq
hamyonga tushadi.”

7 Sarvari Olamning kalomi shudir: “O‘z ahvolingizga qarab, yaxshilab o‘ylab
ko‘ring, axir! 8 Tog‘larga chiqib, yog‘och olib tushinglar–da, Mening uyimni
quringlar. Men uni ko‘rib zavqlanaman, u yerda ulug‘lanaman, — deydi Egamiz.
9 — Ko‘p hosil olishni umid qilgan edingiz, mana kam oldingiz. Uyga olib
kelganingizni sochib yubordim. Nima uchun?” Sarvari Olam shunday demoqda:
“Mening uyim vayron bo‘lib yotgan paytda, sizlar faqat o‘z uyingiz haqida
o‘ylaganingiz uchun shunday qildim. 10 Sizlarning dastingizdan osmondan
shudring tushmadi, yer ham hosil bermadi. 11 Men dalalarga, qirli joylarga
qurg‘oqchilik* keltirib, don, uzum sharbati va zaytun moyini quritdim. Yerdan

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

chiqqan barcha hosilni yo‘q qildim, odamlar va hayvonlarni qiyinchiliklarga duchor qildim. Insonlarning o‘z qo‘llari bilan qilgan mehnatlarini puchga chiqardim.”

Xalq Xudoning buyrug‘iga bo‘ysunadi

12 Shundan keyin Zarubabel, oliy ruhoniy Yoshua* va surgundan qaytib kelgan barcha xalq o‘zlarining Egasi Xudoga itoat qilishdi. O‘zlarining Egasi Xudo yuborgan Xaggey payg‘ambarning so‘zlariga quloq solishdi, chunki ular Egamizdan qo‘rqardi.
13 Egamizning elchisi Xaggey Uning quyidagi so‘zlarini xalqqa yetkazdi:
— Egamizning kalomi shudir: “Men sizlar bilan birgaman.”
14 Yahudo hokimi Zarubabelni, oliy ruhoniy Yoshuani va surgundan qaytib kelgan butun xalqni Egamiz ruhlantirdi. Shunda ular hammalari kelib, o‘zlarining Xudosi, Sarvari Olamning uyini tiklashni boshladilar. 15 Shoh Doro hukmronligining ikkinchi yili oltinchi oyining* yigirma to‘rtinchi kunida Ma’badning qayta qurilishi boshlandi.

2–BOB

Yangi Ma’badning ulug‘vorligi

1 O‘sha yilning* yettinchi oyi*, yigirma birinchi kunida Egamiz yana xabar yuborib, quyidagi so‘zlarni Xaggey payg‘ambarga ayon qildi:

2 Yahudo* hokimi Shaltiyol o‘g‘li Zarubabelga*, oliy ruhoniy Yohuzadax o‘g‘li Yoshuaga va surgundan qaytib kelgan butun xalqqa shu gaplarni yetkaz:
3 “Orangizda oldingi Ma’badning* shuhratini ko‘rganlar bormi? Hozirgi ko‘rinishi qanday? Oldingisi bilan solishtirganda bunisi arzimagan bir narsaday–ku, axir! 4-5 Egamizning kalomi shudir: «Endi dadil bo‘l, ey Zarubabel! Dadil bo‘l, ey oliy ruhoniy Yoshua! Ey surgundan qaytib kelgan shu yurt ahli, endi dadil bo‘linglar!» Sarvari Olam shunday demoqda: «Mening Ruhim hali ham sizlarning orangizda, qo‘rqmanglar. Ishga kirishinglar, chunki Misrdan chiqqaningizda sizlarga bergan va’damga binoan Men sizlar bilan birgaman.»
6 Axir, Sarvari Olamning kalomi shudir: «Birpasdan keyin yana yeru osmonni, dengiz va quruqlikni larzaga solaman. 7 Barcha xalqlarni titrataman, ularning xazinasi shu yerga keltiriladi.» Sarvari Olam demoqda: «O‘shanda Men mana shu Ma’badni hashamat bilan boy qilaman.» 8 Sarvari Olamning kalomi shudir: «Kumush Meniki, oltin ham Menikidir.» 9 Sarvari Olam aytmoqda: «Bu Ma’badning keyingi shuhrati oldingisidan ham ulug‘roq bo‘ladi.» Sarvari Olamning kalomi shudir: «Mana shu yerga tinchlik ato qilaman.»”

Itoatkorlikdan kelgan baraka

10 Shoh Doro hukmronligining ikkinchi yili*, to‘qqizinchi oyning* yigirma to‘rtinchi kunida Xaggey payg‘ambar orqali Egamizning quyidagi so‘zlari ayon bo‘ldi. 11 Xaggey ruhoniylarga dedi:

— Sarvari Olam shunday aytmoqda: “Ruhoniylardan qonun bo‘yicha quyidagi holatlarni ajrim qilishni so‘ra: 12 agar birortasi kiyimining etagida qurbonlikdan olingan muqaddas go‘shtni olib ketayotgan bo‘lsa, o‘sha kiyimning etagi bilan non, sho‘rva, sharob, zaytun moyi yoki boshqa yeguliklarga tegib ketsa, o‘sha

narsalar ham muqaddas hisoblanadimi?”

Ruhoniylar Xaggeyga:

— Yo‘q*, — deb javob berdilar.

13 Xaggey yana so‘radi:

— Agar birortasi inson jasadiga tekkani uchun harom bo‘lsa–yu, yuqorida aytib o‘tilgan yeguliklardan biriga tegsa, o‘sha yeguliklar harom hisoblanadimi?

Ruhoniylar:

— Ha*, — deb javob berdilar.

14 Shunda Xaggey dedi:

— Egamizning kalomi shudir: “Mana bu odamlar ham, bu xalq ham oldimda xuddi shundaydir*. Ular qilgan ishlarning hammasi, ular keltirgan har bir nazr ham haromdir. 15 Endi sizga nima bo‘lgani haqida o‘ylab ko‘ring. Mening Ma’badimni qayta qurishni boshlamasingizdan oldin* nimalar bo‘lgani haqida o‘ylab ko‘ring. 16 20 chora don olaman deb, xirmonga borganingizda, u yerda faqat 10 chora don bo‘lardi. Xumdan 50 ko‘za sharob olaman deb, borganingizda esa faqat 20 ko‘za sharob topardingiz.” 17 Egamiz demoqda: “Mehnatingizning barcha samarasini yo‘q qilay deb garmsel*, shira va do‘l yubordim. Shunda ham Menga qaytishni rad qildingiz. 18-19 Ammo bugun*, to‘qqizinchi oyning yigirma to‘rtinchi kunidan boshlab, sizlarga nima bo‘lishiga e’tibor beringlar. Ma’badimning poydevori yotqizilganiga ancha bo‘ldi*. O‘shandan beri, ekkan urug‘laringiz deyarli hosil bermas edi, toklaringiz, anjirlaringiz, anorlaringiz va zaytun daraxtlaringizning hosili bebaraka edi. Ammo bugundan boshlab, Men sizlarga baraka beraman.”

Egamizning Zarubabelga bergan va’dasi

20 O‘sha kuni*, oyning yigirma to‘rtinchi kunida Egamiz yana xabar yuborib, quyidagi so‘zlarni Xaggey payg‘ambarga ayon qildi:

21 Yahudo hokimi Zarubabelga ayt: “Osmon va yerni larzaga solaman.
22 Shohliklarning taxtlarini ag‘daraman, xalqlarning shohliklariga barham beraman. Jang aravalari va ularning ustidagilarni ag‘daraman. Otlar, chavandozlar yiqiladi, hamma bir–birining qilichidan halok bo‘ladi.

23 Egamizning kalomi shudir: «Ey qulim Shaltiyol o‘g‘li Zarubabel, o‘sha kuni, — demoqda Sarvari Olam, — seni O‘z muhr uzugimday qilaman*, chunki Men seni tanlaganman.» Sarvari Olamning kalomi shudir.”

IZOHLAR

…yahudiylar Bobildan Quddusga qaytib, Ma’badni qayta qurishga kirishadilar — Ezra 1:1-11, 3:7-13 ga qarang.

…qayta qurish ishlari to‘xtab qoladi — Ezra 4:1-5 ga qarang.

1:1 *Shoh Doro hukmronligining ikkinchi yili* — miloddan oldingi 520 yil. Doro miloddan oldingi 522-486 yillarda Fors shohligida hukmronlik qilgan.

1:1 *oltinchi oy* — ibroniy kalendarining Elul oyi nazarda tutilgan. Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan avgustning o‘rtasidan boshlanadi.

1:1 *Yahudo* — o‘sha davrda Yahudo yurti Fors shohligining hukmronligi ostida bo‘lgan. Yahudo yurti hududiga faqat Quddus va uning atrofidagi yerlar kirardi. Yahudo shohlari hukmronlik qilgan davrda esa bu yurtning hududi ancha katta edi.

1:1 *Shaltiyol o‘g‘li Zarubabel* — 1 Solnomalar 3:17-19 ga ko‘ra, Zarubabel Shaltiyolning ukasi Podiyoning o‘g‘li edi. Shaltiyol va Podiyo surgun qilingan Yahudo shohi Yohayxinning o‘g‘illari bo‘lib, Shaltiyol to‘ng‘ich farzand edi (4 Shohlar 24:8-17 ga qarang). Shaltiyolning o‘g‘li bo‘lmaganiga ikki taxmin mavjud: u befarzand edi yoki farzandlari bo‘lgan–u, ammo hammasi halok bo‘lgan. Sababi nima bo‘lishidan qat’i nazar, shoh sulolasi Podiyo orqali davom etgan. Matndagi “Shaltiyol o‘g‘li” iborasi Zarubabel shoh Yohayxinning haqqoniy taxt vorisi ekanligini ko‘rsatadi.

1:4 *…Mening uyim vayron bo‘lib yotganda…* — Ma’bad Bobilliklar tomonidan miloddan oldingi 586 yilda vayron qilingan edi (4 Shohlar 25:1-21 ga qarang). Bobilda surgunda bo‘lgan yahudiylarning birinchi guruhi miloddan oldingi 538 yilda Quddusga qaytib, Ma’badni qayta qurishni boshlagan edi (Ezra 1:1-11 ga qarang). Miloddan oldingi 536 yilda Ma’badning poydevori bitgan edi. Ammo Ma’badning qayta qurilishi ko‘p qarshiliklar tufayli miloddan oldingi 520 yilgacha to‘xtab qolgan edi (Ezra 3:7-4:5 ga qarang).

1:11 *qurg‘oqchilik* — ibroniychada *qurg‘oqchilik* va *vayron* so‘zlari o‘zaro ohangdosh. Bu so‘z Ma’badning ahvolini tasvirlaydi (shu bobning 4, 9–oyatlariga qarang).

1:12 *…Zarubabel, oliy ruhoniy Yoshua…* — ibroniycha matnda *…Shaltiyol o‘g‘li Zarubabel, oliy ruhoniy Yohuzadax o‘g‘li Yoshua…*.

1:15 *Shoh Doro hukmronligining ikkinchi yili oltinchi oyi* — shu bobning 1–oyatiga va o‘sha oyatning birinchi va ikkinchi izohlariga qarang.

2:1 *O‘sha yil* — 1:1 ga va o‘sha oyatning birinchi izohiga qarang.

2:1 *yettinchi oy* — ibroniy kalendarining Tishri oyi nazarda tutilgan (Tishri oyi Itanim oyi deb ham ataladi). Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan sentabrning o‘rtasidan boshlanadi.

2:2 *Yahudo* — 1:1 ning uchinchi izohiga qarang.

2:2 *Shaltiyol o‘g‘li Zarubabel* — 1:1 ning oxirgi izohiga qarang.

2:3 *oldingi Ma’bad* — 1:4 izohiga qarang.

2:10 *Shoh Doro hukmronligining ikkinchi yili* — miloddan oldingi 520 yil (1:1 ga va o‘sha

oyatning birinchi izohiga qarang).

2:10 *to‘qqizinchi oy* — ibroniy kalendarining Xislav oyi nazarda tutilgan. Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan noyabrning o‘rtasidan boshlanadi.

2:12 *Yo‘q* — Tavrotga ko‘ra, muqaddas go‘shtga tekkan kiyim ham muqaddas bo‘lardi (Levilar 6:27 ga qarang). Ammo bunday kiyimga tekkan narsa muqaddas bo‘lib qolmasdi, chunki muqaddaslik birin–ketin boshqa narsalarga o‘tib ketmaydi.

2:13 *Ha* — Tavrotda ko‘ra, harom narsaga tekkan odam harom bo‘lardi. O‘sha odam tekkan har qanday boshqa narsa ham harom hisoblanadi (Sahroda 19:11-13, 22 ga qarang). Muqaddaslikdan farqli ravishda (shu bobning 12–oyati izohiga qarang), haromlik birin–ketin boshqa narsalarga o‘tib ketaverardi.

2:14 *…Mana bu odamlar ham, bu xalq ham oldimda xuddi shundaydir* — shu bobdagi 12-14–oyatlarning ma’nosi quyidagicha: xalq o‘zlarini o‘sha muqaddas kiyimday hisoblardilar (shu bobning 12–oyatiga va o‘sha oyatning izohiga qarang). Chunki ular Egamiz bilan bo‘lgan munosabatlari orqali muqaddas qilingan edilar (Chiqish 19:3-6 ga qarang). Ular, biz Xudoning aziz xalqi bo‘lganimiz uchun, Xudo bizning yurtimizga alohida baraka beradi, deb o‘ylardilar. Ammo Xaggey xalqqa aslida vaziyat qanday ekanligini tushuntiradi. Xaggeyning ta’kidlashicha, Ma’badning vayronalari harom murdaday edi (shu bobning 13–oyatiga va o‘sha oyatning izohiga qarang). Xalq Quddusdagi qurbongohda qurbonliklar keltirsa ham (Ezra 3:1-6 ga qarang), ular Ma’badga e’tiborsizliklari oqibatida harom bo‘lgan edilar. Xudo yurtni la’natlashiga ana shular sabab bo‘lgan edi (1:3-11 ga qarang). Xaggey xalqqa tanbeh berib, ularni Ma’badni qayta qurishga da’vat qiladi.

2:15 *Mening Ma’badimni qayta qurishni boshlamasingizdan oldin…* — miloddan oldingi 536-520 yillar nazarda tutilgan. Shu yillarda Ma’badni qayta qurish bo‘yicha hech qanday ish qilinmagan edi (1:4 izohiga qarang).

2:17 *garmsel* — hosilga katta ziyon keltiradigan issiq shamol.

2:18-19 *bugun* — shu bobning 10–oyatiga qarang.

2:18-19 *Ma’badimning poydevori yotqizilganiga ancha bo‘ldi* — o‘n olti yil oldin, ya’ni miloddan oldingi 536 yil nazarda tutilgan (1:4 izohiga qarang).

2:20 *O‘sha kuni* — shu bobning 10–oyatiga qarang.

2:23 *…seni O‘z muhr uzugimday qilaman…* — muhr uzugi Xudo tomonidan shohga berilgan hokimiyat timsoli edi (to‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi MUHR so‘ziga qarang). Xudo Dovudga, sening nasling to abad Isroil taxtida o‘tiradi, deb va’da bergan edi (2 Shohlar 7:16 ga qarang). Ammo Dovud naslidan bo‘lgan shoh Yohayixin qilgan gunohlari uchun Xudo tomonidan rad etilib, jazolangan (4 Shohlar 24:8-17 ga qarang). Shu bois Yohayixin Xudo ishlatmaydigan muhr uzugiday bo‘lib qolgan edi (Yeremiyo 22:24-30 ga qarang). Shunga qaramay, Xudo Dovudga bergan va’dasiga sodiq qolib, bu oyatda, Dovud naslidan bo‘lgan Zarubabelga, seni muhr uzugimday qilaman, deb aytgan. Dovud sulolasi Yohayxinning haqqoniy taxt vorisi bo‘lgan Zarubabel orqali davom etgan (1:1 ning oxirgi izohiga qarang).

ZAKARIYO

PAYG‘AMBARNING KITOBI

Kirish

Mazkur kitob Zakariyo payg‘ambarning bashoratlaridan iboratdir. Zakariyo payg‘ambar Bobilda tug‘ilgan. Miloddan oldingi 538 yilda u Bobildagi yahudiy asirlar bilan birga Quddusga qaytgan edi. Zakariyo payg‘ambar Xaggey payg‘ambarning zamondoshi* bo‘lib, undan keyin ham ko‘p yillar davomida faoliyat ko‘rsatgan.

O‘sha davrda Yahudo yurti* Fors imperiyasiga qaram edi. Yahudoga qaytgan yahudiylar Ma’badni qayta qurishni boshlagandilar. Ammo xalq tushkunlikka tushib, qurilish ishlarini to‘xtatgan edi.

Kitobning birinchi qismida (1-8–boblar) Xudo Zakariyo payg‘ambarga sakkizta vahiy bergani haqida bayon qilinadi. Majoziy obrazlarga boy bo‘lgan bu vahiylar orqali Zakariyo payg‘ambar xalqni ruhlantiradi, Ma’badni oxirigacha qurishlari uchun ularga shijoat baxsh etadi.

Kitobning ikkinchi qismida (9-14–boblar) Zakariyo keladigan shoh haqida va Xudo xalqining porloq kelajagi haqida gapirib, xalqqa umid bag‘ishlaydi. Kitobning bu qismidagi vahiylar uzoq kelajakka oid bo‘lib, boshqa xalqlarning Quddus va Yahudoga hujum qilishi haqida xabar beradi. O‘sha vaqt kelganda Yahudo xalqining ko‘pchiligi o‘ldiriladi, lekin Xudo O‘z xalqining bir qismini qutqaradi. Shunda Yahudo xalqidan omon qolganlar tavba qilib, Xudoga qaytishadi, Xudo ularni kechiradi. O‘sha zamonda Quddus shahri yuksaladi. Shahardan hayotbaxsh irmoqlar oqib chiqadi. Butun yer yuzidagi xalqlar Xudoga sajda qilishadi.

1–BOB

Egamiz xalqini O‘ziga qaytishga undaydi

1 Shoh Doro hukmronligining ikkinchi yili* sakkizinchi oyida* Yiddoning nabirasi — Barxiyoning o‘g‘li Zakariyo payg‘ambarga Egamiz O‘z so‘zini ayon qildi. 2-3 Egamiz unga quyidagi xabarni xalqqa yetkazishni buyurdi:

> Egamiz ota–bobolaringizdan qattiq g‘azablangan edi. Endi Sarvari Olam shunday aytmoqda:
> — Menga qaytinglar, — demoqda Sarvari Olam. — Shunda Men ham sizlarga qaytaman, — deydi Sarvari Olam.
> 4 Ota–bobolaringizga o‘xshagan bo‘lmanglar. Oldingi payg‘ambarlar Sarvari Olam nomidan ularga:
> — Yomon yo‘ldan qaytinglar! Qabih qilmishlaringizdan tavba qilinglar! — deb ogohlantirishgan.
> Egamiz shunday demoqda:
> — Garchi Men ota–bobolaringizni ogohlantirgan bo‘lsam–da, ular Mening so‘zlarimga e’tibor bermadilar, Menga quloq solmadilar. 5 Qani endi o‘sha ota–

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

bobolaringiz?! Qani, o‘sha payg‘ambarlar, ular abadiy yashaydilarmi?! 6 O‘z
qullarim payg‘ambarlar orqali aytgan so‘zlarim, ogohlantirishlarim ota–
bobolaringizning boshiga tushdi–ku! Shunda ular tavba qilib: “Sarvari Olam O‘zi
rejalashtirganday, yurgan yo‘llarimiz va qilmishlarimizga yarasha bizni jazoladi”,
deb aytishdi.

Zakariyo ko‘rgan sakkizta vahiy

7 Shoh Doro hukmronligining ikkinchi yili* o‘n birinchi oyi — Shebat oyining*
yigirma to‘rtinchi kunida Yiddoning nabirasi — Barxiyoning o‘g‘li Zakariyo
payg‘ambarga Egamiz yana O‘z so‘zini ayon qildi. Zakariyo quyidagi vahiylarni ko‘rdi:

Birinchi vahiy: otlar va chavandozlar

8 Kechasi men qizg‘ish ot mingan Egamizning farishtasini* ko‘rdim. U kichik jarlikda
mirta butalari* orasida to‘xtab turardi. Uning orqasida esa qizg‘ish, jigar rang va oq otlar
mingan chavandozlar bor edi. 9 Boshqa bir farishta men bilan gaplashayotgan edi. Men
undan:

— Ey to‘ram, bu chavandozlar kim bo‘ldi? — deb so‘radim. U shunday dedi:

— Ularning kimligini senga ko‘rsataman.

10 Shunda mirta butalari orasidagi farishta* shunday javob berdi:

— Egamiz ularni, butun yer yuzini kezib chiqsin, deb yuborgan.

11 Keyin chavandozlar mirta butalari orasidagi Egamizning farishtasiga dedilar:

— Biz butun yer yuzini aylanib chiqdik, butun dunyo o‘ziga berilgan, o‘zicha tinch
yashab yuribdi.

12 Shunda Egamizning farishtasi shunday deb yolvordi:

— Ey Sarvari Olam, qachongacha Quddus va Yahudo shaharlaridan O‘z mehr–
shafqatingni darig‘ tutasan?! Axir, Sen yetmish yildan* beri ulardan g‘azablanib
kelyapsan!

13 Shunda Egamiz men bilan gaplashgan farishtaga tasalli beruvchi, mehrga to‘la
so‘zlar bilan javob berdi. 14 O‘sha farishta odamlarga quyidagi xabarni e’lon qilishimni
buyurdi:

Sarvari Olam shunday aytmoqda:

— Men Quddus va Sionga* juda achinib ketdim. 15 Anavi xalqlardan esa qattiq
g‘azabdaman, chunki O‘z xalqimdan ozgina jahlim chiqqanda, ular xalqimning
boshiga tushgan kulfatni yanada orttirishdi. Endi esa o‘zicha tinch yashab
yurishibdi.

16 Shuning uchun Egamiz aytmoqda:

— Men Quddusga mehr–shafqat ko‘rsatay deb qaytdim. Mening uyim o‘sha
yerda quriladi, Quddus qaytadan qurilishi uchun o‘lchanadi.

Sarvari Olamning kalomi shudir.

17 Farishta yana shunday so‘zlarni e’lon qilishimni buyurdi:

Sarvari Olam demoqda:

— Mening shaharlarimda yana to‘kin–sochinlik bo‘ladi. Men Quddus aholisini
yana bir bor yupataman, Sionni O‘z shahrim deb yana aytaman.

Ikkinchi vahiy: shoxlar va temirchilar

18 Men tepaga qarab, buqaning to‘rtta shoxini* ko‘rdim. 19 Men bilan gaplashgan
farishtadan:
— Bular nima? — deb so‘radim. U menga dedi:
— Bu buqa shoxlari Yahudo, Isroil* xalqlarini va Quddus aholisini sochib tashlagan
hukmdorlarni* bildiradi.
20 Shundan keyin Egamiz menga to‘rtta temirchini ko‘rsatdi. 21 Men yana:
— Bu temirchilar nima qilgani kelishyapti? — deb so‘radim. U shunday deb javob
berdi:
— Boshqa hech kim bosh ko‘tarmasin deb, to‘rtta shox Yahudo xalqini sochib
tashlagandi. Endi temirchilar o‘sha buqa shoxlarini qo‘rquvga solishga kelishyapti. O‘zga
xalqlar Yahudo yurtini o‘z shoxlari bilan suzgandi, yurtning xalqini sochib yuborgandi.
Endi temirchilar mana shu xalqlarning shoxlarini kesib tashlash uchun kelishyapti.

2–BOB

Uchinchi vahiy: tanobi bor kishi

1 Men yana tepaga qarab, qo‘lida tanobi* bor bir kishini ko‘rdim. 2 Undan:
— Qayerga ketyapsiz? — deb so‘radim. U menga:
— Quddusni o‘lchashga, eni va uzunligi qancha chiqarkan, shuni bilib kelishga
ketyapman, — deb javob berdi.
3 Shundan keyin men bilan gaplashgan farishta ketayotgan edi, yana boshqa farishta
unga peshvoz chiqib, 4-5 shunday dedi:
— Yugur, borib o‘sha yigitga* ayt: “Egamiz aytmoqda:
— Odamlar va mol–qo‘ylar ko‘pligidan Quddus shahriga sig‘may qoladi. Ularning
ko‘plari shahar tashqarisida yashaydi, ammo Men O‘zim ularning atrofida olov devorday
bo‘laman. O‘zim shahar ichidagi ulug‘vorlik bo‘laman.”

Lirik chekinish: surgundagilar o‘z vataniga chaqiriladi

6 “Qani, turinglar! Shimoldagi yurtdan qochinglar, — demoqda Egamiz. — Men
sizlarni yerning to‘rt tarafiga sochib tashlagan bo‘lsam ham* turinglar, — aytmoqda
Egamiz. 7 — Ey Bobilda yashaydiganlar, Quddusga* qochinglar.”
8 Ey Quddus! Sizlarni talon–taroj qilgan xalqlar oldiga Sarvari Olam meni yubordi.
Shu orqali U O‘z shuhratini namoyon qilmoqchi*. U shunday aytmoqda: “Sizlarga
tekkanlar xuddi Mening ko‘z qorachig‘imga tekkanday bo‘ladi. 9 Qarab turinglar, Men
O‘zim ularga qarshi chiqaman. O‘z qullari ularni talon–taroj qiladilar.” Ha, ana o‘shanda
Sarvari Olam meni yuborganligini anglab yetasiz.
10 Egamiz shunday demoqda: “Qo‘shiq kuylab, xursand bo‘lgin, ey Quddus xalqi! Men
kelib sizlarning orangizda yashayman. 11 O‘sha kuni ko‘p xalqlar Menga yuz burib,
Mening xalqim qatoriga qo‘shiladilar. Men sizlarning orangizda yashayman.” Ha, ana
o‘shanda Sarvari Olam meni yuborganini anglab yetasiz. 12 Yahudo muqaddas yurtdagi
Egamizning mulki bo‘ladi, Egamiz Quddusni “O‘z shahrim” deb aytadi. 13 Ey odamzod,
Egamiz oldida sukut saqla. Ana, U muqaddas maskanidan chiqib kelmoqda.

3–BOB

To‘rtinchi vahiy: oliy ruhoniy va shayton

1 Keyin farishta menga Egamizning farishtasi oldida oliy ruhoniy Yoshua turganini
ko‘rsatdi. Yoshuaning o‘ng tomonida esa shayton* uni ayblab turgan edi. 2 Egamiz
shaytonga shunday dedi:
— Ey shayton! Gaplaringning hammasi yolg‘on! Men Quddusni tanlagan Egangman.
Men senga aytaman, gaplaring yolg‘on! Axir, bu kishi alangadan qutqarilgan bir o‘tin
parchasiday emasmi?!
3 Yoshua farishtaning oldida kir kiyimlarda turar edi. 4 Farishta atrofida
turganlarga*:
— Uning kir kiyimlarini yechinglar, — dedi. Yoshuaga esa:
— Mana, qara, Men sening gunohlaringni olib tashladim, — dedi. — Endi senga toza,
bayramlarda kiyadigan yangi kiyimlarni kiydiraman.
5 Keyin men:
— Uning boshiga toza salla kiydiringlar, — dedim. Uning boshiga toza salla, ustiga
esa yangi kiyim kiydirishdi. Egamizning farishtasi uning yonida turar edi.
6 Keyin Egamizning farishtasi Yoshuani ogohlantirib, shunday dedi:
7 — Sarvari Olam shunday aytmoqda: “Agar sen Mening yo‘limdan yurib,
talablarimni bajarsang, Mening uyimda, Ma’badim hovlilarida bosh bo‘lasan. Senga shu
yerda turganlar orasidan joy beraman*. 8 Ey oliy ruhoniy Yoshua, quloq sol! Oldingda
turgan ruhoniylar ham quloq solishsin. Sizlar kelajakda sodir bo‘ladigan voqealarning
ramzisizlar. Men ismi «Novda»* bo‘lgan xizmatkorimni zohir qilaman. 9 Men Yoshuaning
oldiga bir tosh qo‘ydim. Mening yetti ko‘zim o‘sha toshga qadalgan. Bu toshning ustiga
Men yozuv yozaman, — demoqda Sarvari Olam. — Mana shu yurtning gunohini bir
kunda olib tashlayman. 10 O‘sha kuni sizlar qo‘ni–qo‘shnilaringizni chaqirib, o‘z
uzumzorlaringizda va anjir daraxtlaringiz tagida o‘tirasizlar.” Sarvari Olamning kalomi
shudir.

4–BOB

Beshinchi vahiy: chiroqpoya va ikkita zaytun daraxti

1 Men bilan gaplashgan farishta qaytib kelib, xuddi meni uyqudan uyg‘otganday qilib
turg‘izdi. 2 U mendan:
— Nima ko‘ryapsan? — deb so‘radi. Men shunday javob berdim:
— Tilladan yasalgan bir chiroqpoyani ko‘ryapman, uning ustida moy uchun bir
tovoq turibdi. Chiroqpoyada esa yettita moychiroq turibdi. U moychiroqlarning har
birida yettitadan jo‘mragi bor. 3 Chiroqpoyaning oldida ikkita zaytun daraxti bor. Bu
daraxtlarning biri chiroqpoyaning o‘ng tomonida, ikkinchisi esa chap tomonida turibdi.
4 Men bilan gaplashgan farishtadan so‘radim:
— Bular nima, ey to‘ram?*
5 U mendan:
— Nimaligini bilmaysanmi? — deb so‘radi. Men:
— Yo‘q, to‘ram, — deb javob berdim.

6 U menga shunday dedi:
— Quyidagilar Egamizning Zarubabelga* bergan xabaridir: “Qudrat bilan emas, kuch
bilan emas, Mening Ruhim ila muvaffaqiyatga erishasan, — deydi Sarvari Olam. 7 — Ey
baland tog‘*, sen nima bo‘libsan?! Zarubabel oldida sen tekislik bo‘lasan. Zarubabel
Mening uyimni qayta quradi, uning eng oxirgi toshini qo‘yadi. Shundan keyin butun
xalq: «Xudo marhamat qilsin!» deb hayqiradi.”
8 Yana Egamiz menga quyidagi so‘zini ayon qildi: 9 “Zarubabel o‘z qo‘llari bilan
uyimning poydevorini yotqizdi. Qurilishni ham o‘zi tugatadi. Ana shunda Men, Sarvari
Olam, seni yuborganimni xalq anglab oladi. 10 Qurilishning boshlanishi arzimasday
ko‘rinsa ham, ko‘nglingiz cho‘kmasin! Zero, Mening ko‘zlarim, ya’ni Egangizning yettita
ko‘zi Zarubabelning qo‘lidagi yozuv o‘yilgan toshga* xursandchilik bilan qaraydi.”

Shunda Farishta menga dedi:
— Sen ko‘rgan yettita moychiroq butun yer yuziga qarab turuvchi Egamizning
yettita ko‘zidir.
11 Men farishtadan so‘radim:
— Chiroqpoyaning o‘ng va chap tomonida turgan zaytun daraxtlarining ma’nosi
nima? 12 Oltin novlari orqali tillasimon moy oqayotgan zaytun daraxtlarining ikki shoxi
nimani bildiradi?
13 U mendan:
— Bilmaysanmi? — deb so‘radi. Men:
— Yo‘q, to‘ram, — deb javob berdim. 14 U shunday dedi:
— Bular boshiga moy surtib tanlangan, butun olamning Rabbiysi oldida xizmat
qiladigan ikki zotdir*.

5–BOB

Oltinchi vahiy: uchayotgan o‘rama qog‘oz

1 Men yana tepaga qarab uchayotgan o‘rama bir qog‘ozni* ko‘rdim. 2 Farishta
mendan:
— Nima ko‘ryapsan? — deb so‘radi. Men:
— Uchib ketayotgan o‘rama bir qog‘ozni ko‘ryapman, uning uzunligi yigirma tirsak,
eni esa o‘n tirsak*, — deb javob berdim.
3 Shunda u menga dedi:
— Bu qog‘ozga butun yurt ustiga keladigan la’nat yozilgan. Qog‘ozning bir
tomonidagi yozuvga ko‘ra, o‘g‘rilik qilganlar, orqa tomonidagi yozuvga ko‘ra, yolg‘on
qasam ichganlar yurtdan yo‘q qilinadi. 4 Sarvari Olam aytmoqda: “Bu la’natni Men
yubordim, u o‘g‘rining uyiga kiradi. Kim Mening nomim bilan yolg‘on qasam ichsa,
o‘shaning uyiga kiradi. La’nat o‘sha uyda bo‘lib, uni tosh va sinchlariga qo‘shib, butunlay
vayron qiladi.”

Yettinchi vahiy: savat ichidagi ayol

5 Men bilan gaplashgan farishta kelib, menga shunday dedi:
— Qara–chi, kelayotgan narsa nima ekan.
6 Men:
— U nima? — deb so‘radim. Farishta:

— Bu kelayotgan narsa savatdir, — deb javob berdi. — Yurtdagi jamiki aholining niyatu muddaolarini bildiruvchi timsol o‘sha savat ichidadir.

7 Qo‘rg‘oshindan yasalgan qopqoq ochildi, savatning ichida esa bir ayol o‘tirgan ekan.
8 Farishta dedi:

— Bu ayolning ismi Fosiqlik.

Shunday deb, u ayolni qaytarib savatga tiqib qo‘ydi–da, qopqog‘ini yopdi.

9 Men yana tepaga qarab, ikkita ayol uchib kelayotganini ko‘rdim. Ular qanotlarini shamolda yoygan holda uchib kelayotgan edilar, qanotlari turnaning qanotlariga o‘xshar edi. Ular kelib o‘sha savatni oldilar–da, osmonga ko‘tarib olib ketdilar. 10 Men bilan gaplashayotgan farishtadan so‘radim:

— Ular savatni qayerga olib ketishyapti?

11 U menga:

— Bobil* yurtiga olib ketishyapti, — deb javob berdi. — O‘sha yerda unga sajdagoh qurishadi. Sajdagoh tayyor bo‘lgandan keyin, savatni o‘sha yerda o‘z joyiga qo‘yishadi.

6–BOB

Sakkizinchi vahiy: to‘rtta arava

1 Men yana tepaga qarab, ikkita bronza tog‘ orasidan chiqib kelayotgan to‘rtta aravani ko‘rdim. 2 Birinchi aravani qizg‘ish, ikkinchi aravani esa qora otlar, 3 uchinchi aravani oq, to‘rtinchi aravani esa ola–bula otlar tortib kelayotgan edi. Bu otlarning hammasi kuchli edi. 4 Men bilan gaplashayotgan farishtadan:

— Ey to‘ram, bular nima? — deb so‘radim. 5 Farishta shunday javob berdi:

— Bular butun olam Rabbiysining huzuridan chiqib kelayotgan to‘rtta samoviy ruhdir. 6 Qora otli arava shimolga boradi. Oq otlisi esa uning orqasidan ketadi*. Ola–bula otli arava janubga boradi.

7 Ana shu kuchli otlar chiqib kelib, yerni aylanishga shoshildilar. Farishta ularga:

— Boringlar, yerni ko‘rib chiqinglar, — dedi. Shunda ular yerni aylanib kelishdi.
8 Keyin farishta meni chaqirib, shunday dedi:

— Mana, qara! Otlar shimoldagi yurtga* borishdi. U yerda Egamizning irodasini ado etishdi, Egamiz jahlidan tushdi*.

Yoshuaga toj kiydirish haqida amr

9 Egamiz menga quyidagi so‘zlarni ayon qildi:

10 — Bobildagi surgundan qaytib kelgan Xalday, To‘viyo va Yodayodan tilla va kumush ol. O‘sha kuniyoq Zafaniyo o‘g‘li Yo‘shiyoning uyiga bor. 11 Berilgan kumush va oltindan toj yasagin. Uni Yohuzadax o‘g‘li — oliy ruhoniy Yoshuaning boshiga kiygizgin–da, 12 unga shunday degin: “Sarvari Olam shunday demoqda: Novda* degan odam o‘z turgan joyidan shoxlaydi–da, Mening Ma’badimni quradi. 13 Ha, Mening Ma’badimni quradigan o‘shadir. U shohona ulug‘vorlikka ega bo‘lib, hukmronlik qiladi. Taxtining oldida ruhoniy turadi*. Ikkalasi orasida tinchlik, osoyishtalik bo‘ladi. 14 Bu toj Xalday*, To‘viyo, Yodayo va Zafaniyo o‘g‘li Yo‘shiyoning* qaramog‘ida bo‘ladi. U Mening Ma’badimda yodgorlik bo‘lib qoladi. 15 Uzoq joylardan odamlar kelib, Mening Ma’badimni qurishga yordam berishadi.”

Ey surgundan qaytib kelganlar! Shunda Sarvari Olam meni yuborganini sizlar anglab yetasizlar. Agar sizlar Egangiz Xudoning so‘zlariga yaxshilab quloq solsangizlar, mana

shularning hammasi sodir bo‘ladi.

7–BOB

Yuzaki tutilgan ro‘za hukm qilinadi

1 Shoh Doro hukmronligining to‘rtinchi yili* to‘qqizinchi oyi — Xislav oyining*
to‘rtinchi kunida Egamiz O‘z so‘zini Zakariyoga ayon qildi. 2 Bundan oldin Baytil aholisi
Egamizdan iltifot so‘rash uchun Sarizar, Raxemmalek va ularning odamlarini Ma’badga
yuborib, shunday degan edi:
3 — Borib, Sarvari Olamning uyida bo‘lgan ruhoniy va payg‘ambarlardan so‘ranglar:
“Biz ancha yillardan beri Egamizning uyi vayron qilingan oyda* qayg‘urib, ro‘za tutib
kelamiz. Shunday qilishda davom etaveraylikmi?”
4 Sarvari Olam Zakariyoga ayon qilgan so‘zida shunday dedi:
5 — Bu yurtdagi barcha odamlarga va ruhoniylarga ayt: “Ha, sizlar mana shu o‘tgan
yetmish yil* davomida beshinchi va yettinchi oylarda* ro‘za tutib, qayg‘urdingizlar.
Ammo buni Men uchun emas, o‘zingiz uchun qilgan edingizlar! 6 Qorningizni to‘ydirish
uchun yeb–ichganingizday, o‘z manfaatingiz uchun ro‘za tutib qayg‘urgansizlar. 7 Men,
Egangiz, o‘tgan payg‘ambarlar orqali aynan shu haqda sizlarni ogohlantirganman–ku!
O‘sha paytlarda Quddus va uning atrofidagi qishloqlar odamga to‘la edi. U yerda
farovonlik hukm surar edi. Nagav cho‘li va Yahudo qir etaklarida ham odamlar
yashardilar.”

Surgunning sababi itoatsizlikdir

8 Egamiz Zakariyoga quyidagi so‘zlarni ayon qildi:
9 — Men, Sarvari Olam, shunday degan edim: “Adolatli hukm qilinglar. Bir–biringizga
mehribon bo‘linglar, rahm–shafqat qilinglar. 10 Bevalarga, yetimlarga, musofirlarga,
kambag‘allarga zulm qilmanglar. Bir–biringizga qarshi yovuz rejalar tuzmanglar.”
11 Ammo xalqim quloq solishdan bosh tortdi. O‘jarlik qilib, eshitmaslik uchun quloqlarini
berkitdi. 12 Men, Sarvari Olam, O‘z Ruhim bilan payg‘ambarlar orqali so‘zlarimni ayon
qilganman. Ammo xalqim yuragini tosh qilib, qonun va o‘gitlarga quloq solmadi.
Shuning uchun Men juda qattiq g‘azablandim.
13 “Men chaqirganimda ular eshitmagandilar, ular chaqirganda Men ham
eshitmadim, — deydi Sarvari Olam. 14 — Men ularni o‘zlari tanimagan, bilmagan xalqlar
orasiga sochib tashladim*. Shunday qilib, ularning yurti vayron bo‘ldi. Na u yerga birov
boradi, na u yerdan birov keladi. O‘sha ajoyib yurt vayron bo‘ldi.”

8–BOB

Egamiz Quddusni qayta qurishga va’da beradi

1 Sarvari Olam menga O‘z so‘zini ayon qildi. 2 Sarvari Olam shunday aytmoqda: “Men
Quddusga* qattiq achinib ketdim. Uning dushmanlariga bo‘lgan g‘azabim alangaday
yonmoqda.” 3 Egamizning kalomi shudir: “Men Quddusga qaytaman, Sion Mening
maskanim bo‘ladi. Shunda Quddus sadoqatli shahar deb ataladi. Mening tog‘im* —
Sarvari Olamning tog‘i muqaddas tog‘ deb ataladi.” 4 Sarvari Olam shunday demoqda:
“Cholu kampirlar yana Quddus ko‘chalarida o‘tiradilar. Yoshi ulug‘ bo‘lgani uchun
ularning qo‘llarida hassalari bo‘ladi. 5 Shaharning ko‘chalari o‘ynayotgan bolalar bilan

to‘ladi.”

6 Sarvari Olamning kalomi shudir: “Balki bularning hammasi xalqimdan qolganlariga
imkonsizday tuyular. Ammo bu ishlar Men uchun imkonsiz emas”, — demoqda Sarvari
Olam.
7 Sarvari Olam shunday aytmoqda: “Men sharq va g‘arbda sarson bo‘lgan O‘z
xalqimni qutqaraman. 8 Ularni yana Quddusda yashashlari uchun olib kelaman. Ular
Mening xalqim bo‘ladi, Men esa ularning Xudosi bo‘laman. Ularni sadoqat va odillik
bilan boshqaraman.”
9 Sarvari Olam shunday demoqda: “Dovyurak bo‘linglar, endi sizlar
payg‘ambarlarning so‘zlarini eshityapsizlar. Ma’badim, ya’ni Uyimning qayta qurilishi
uchun poydevor qo‘yilayotganda, o‘sha payg‘ambarlar shu yerda edilar. 10 Ha, o‘sha
kunlardan oldin odam va hayvonlarning ter to‘kib qilgan mehnatlari zoye ketardi, ular
yaxshi hosil ololmas edilar*. Dushmanlar xalqqa tinchlik bermasdi. Men hammani bir–
biriga qarshi qilib qo‘ygan edim. 11 Ammo endi, ey xalqimning qolganlari, Men sizlar
bilan oldingiday munosabatda bo‘lmayman, — demoqda Sarvari Olam. 12 — Sizlar
tinchlikda urug‘laringizni ekasizlar. Toklaringiz serhosil bo‘ladi. Yer hosil beradi,
osmondan shudring tushadi. Sizlarni Men mana shular bilan barakalayman. 13 Ey
Yahudo va Isroil* xalqi, sizlar boshqa xalqlar orasida la’natlangan xalqning ramzi
edingizlar. Endi bunday bo‘lmaydi! Men sizlarni qutqaraman. Sizlar baraka ramzi va
manbai bo‘lasizlar. Qo‘rqmanglar! Dadil bo‘linglar!”
14 Sarvari Olam shunday aytmoqda: “Ota–bobolaringiz Mening jahlimni chiqarganda
boshlariga ofat keltiraman, degandim. O‘z fikrimdan qaytmadim, — demoqda Sarvari
Olam. 15 — Qo‘rqmanglar, ey Quddus va Yahudo xalqi! Endi Men sizlarga yaxshilik
keltiraman, deb qaror qildim. 16 Quyidagi aytganlarimni qilishingiz kerak: bir–biringizga
haqiqatni ayting. Hukm qilganingizda odil qaror chiqarib, tinchlik o‘rnating. 17 Bir–
biringizga qarshi yovuz rejalar tuzmang, yolg‘on qasam ichmang. Men bulardan
nafratlanaman.” Sarvari Olamning kalomi shudir.
18 Sarvari Olam menga O‘z so‘zini ayon qildi. 19 Sarvari Olam shunday aytmoqda: “Ey
Yahudo xalqi, to‘rtinchi, beshinchi, yettinchi va o‘ninchi oylar* endi azayu ro‘za vaqti
emas, balki sizlar uchun shodu xurramlik va quvnoq bayramlar davri bo‘ladi. Sizlar
haqiqat va tinchlikni sevinglar.”
20 Sarvari Olam shunday demoqda: “Hali boshqa shaharlarda yashaydigan odamlar
ham Quddusga keladi. 21 Bir shaharning aholisi ikkinchi shaharda yashovchilarning
oldiga borib: «Biz ketyapmiz, yuringlar, Egamizdan iltifot so‘raylik, Sarvari Olamga sajda
qilaylik», deb aytadi.” 22 Ko‘p ellar va kuchli xalqlar Sarvari Olamdan iltifot so‘ragani va
Unga sajda qilgani Quddusga keladilar. 23 Sarvari Olamning kalomi shudir: “O‘sha
kunlarda turli tillarda gapiruvchi, har xil ellarga mansub bo‘lgan o‘n kishi bir yahudiyni
ushlab oladi. Uning kiyimidan mahkam tutadilar–da, unga: «Biz sen bilan boraylik. Axir,
Xudo sizlar bilan ekanini eshitdik», deb aytadilar.”

9–BOB

Isroilning dushmanlari ustidan chiqarilgan hukm

1 Bashorat. Egamizning so‘zi Xadrax yurtiga* qarshidir.
Damashq shahriga qaratilgandir.

Egamiz barcha Isroil qabilalarini kuzatib turganday,
Butun insoniyatni ham kuzatadi*.
2 Xadraxga chegaradosh bo‘lgan Xomat* ham,
Donolarga to‘la bo‘lgan Tir va Sidon* ham Egamizning ko‘zi ostidadir*.
3 Tir shahri o‘ziga qal’a qurib olgan,
Shunchalik ko‘p kumush va oltin yiqqanki,
Ular ko‘chadagi chang va loydaydir.
4 Lekin endi Rabbiy ularning mulkini tortib oladi,
Boyliklarini dengizga uloqtiradi.
Shaharning o‘zi esa olovga yem bo‘ladi.

5 Ashqalon shahri* buni ko‘rib, qo‘rquvga tushadi,
G‘azo ham dahshatga tushib qaltiraydi,
Umidi puchga chiqqan
Exron ham shu ahvolga tushadi.
G‘azoning shohi halok bo‘ladi,
Ashqalonda esa hech bir zot qolmaydi.
6 Egamiz shunday deydi:
“Ashdodda nasli buzilgan xalqlar yashaydi.
Ha, Men Filistlarning takabburligiga chek qo‘yaman.
7 Men Filistlarning og‘zidagi qonli go‘shtni,
Tishlaridagi harom ovqatni* olib tashlayman.
Filistlarning tirik qolganlari Menga tegishli bo‘ladi,
Ular Yahudoning avlodiday bo‘lib qoladi.
Exron ham Yobus xalqiday*
O‘z xalqimning bir qismi bo‘ladi.
8 Bosqinchilardan asray deb
Men O‘zim uyimni qo‘riqlayman.
Xalqimning yurtini hech kim bosib ololmas,
Ha, Men hammasini ko‘rib turibman.

Bo‘lajak shoh

9 Xursand bo‘lib, quvoning,
Ey Quddus xalqi!
Shodlik ila hayqiring,
Ey Sion aholisi!
Mana, shohingiz kelyapti.
U zafar qozongan g‘olibdir.
Shunga qaramay,
Kamtarindir shohingiz,
U eshakning ustida,
Ha, eshakning bolasini —
Xo‘tikni minib kelyapti.
10 Men Efrayimning* jang aravalarini yo‘qotaman,
Quddusning* jang otlarini tortib olaman.
Urush kamonlari ham yo‘q qilinadi,

Shohingiz xalqlarga tinchlik keltiradi.
Men bir dengizdan ikkinchisiga qadar,
Furot daryosidan tortib
Yer yuzining to‘rt tomoniga hukmronlik qilaman.

Xudo O‘z xalqini qayta tiklaydi

11 Men sizlar bilan qilgan,
Qurbonlik qoni bilan tasdiqlangan ahdim* tufayli,
Asirlaringizni suvsiz chuqurlikdan ozod qilaman.
12 Ey umidvor asirlar,
O‘z qal’angizga qayting.
Bugun Men aytyapman,
Yo‘qotganlaringizni ikki barobar qilib tiklayman.
13 Men Yahudoni O‘z kamonimdek qayirdim,
Efrayimni* esa kamonim o‘qi qildim.
Ey Sion*, Men sening o‘g‘illaringni
Yunon* o‘g‘illariga qarshi qo‘zg‘ataman.
Mening qo‘limda jangchining qilichiday o‘ynaysan.”

Egamiz O‘z xalqini himoya qiladi

14 Shundan keyin Egamiz O‘z xalqi uzra zohir bo‘ladi,
Uning o‘qi yashinday otiladi.
Egamiz Rabbiy burg‘uni chalib,
Janubdan kelgan quyunlar orasida hujum qiladi.
15 Sarvari Olam O‘z xalqini himoya qiladi,
Ular dushmanlarini qirib,
Yov palaxmonlarini oyoq osti qilib tashlaydilar.
Qurbonlik so‘yganday yov qonini to‘kadilar,
Qurbongoh shoxlari qonga belanganday,
Ular dushmanlarining qoniga belanadilar.
Sharobu may bilan g‘alabani nishonlaydilar,
Xursandligidan mast odamday hayqiradilar.

16 O‘sha kuni ularning Egasi Xudo
O‘z xalqini qutqaradi.
Axir, ular Egamizning suruvidir.
Egamizning yurtida ular
Toj gavharlariday porlaydilar.
17 Uning xalqi qanday go‘zal va ajoyib!
Yangi sharobu donlar
Yigit–qizlarni baquvvat qilar.

10–BOB

Egamiz najot berishga va’da qiladi

1 Bahorda yomg‘ir beradigan Egamizdan yomg‘ir so‘ranglar.

Bo‘ron bulutlarini yaratgan,
Odamzodga yomg‘ir beradigan,
Hamma uchun dalalarni o‘t–o‘langa to‘ldiradigan Egamizdir.
2 Xonaki sanamlar* behuda gaplarni gapiradilar,
Folbinlar yolg‘on follar ochadilar.
Tush ta’bir qiluvchilar yolg‘on ta’bir qiladilar,
Behuda tasalli beradilar.
Shuning uchun bu xalq qo‘yday sarson bo‘lib yuribdi,
Cho‘poni yo‘qligi uchun azob chekyapti.

3 Egamiz shunday demoqda:
“G‘azabim xalqimning yo‘lboshchilariga qarshi yonmoqda,
Men xalqimning bu cho‘ponlarini jazolayman.
Men, Sarvari Olam, O‘z suruvim bo‘lgan
Yahudo* xalqi uchun qayg‘uraman.
Men o‘sha suruvni ulug‘vor jang otlariday qilaman.
4 Yahudo orasidan tamal toshi*,
Chodir qozig‘i, jang kamoni chiqadi.
Ha, har bir yetakchi ularning orasidan chiqadi.
5 Birgalikda ular jang payti ko‘chada loy kechgan
Jangchilarday bo‘ladilar,
Men, Egangiz, ular bilan birgaman.
Ular urushga chiqib,
Dushman chavandozlarini sharmanda qiladilar.

6 Men Yahudo xalqini kuchga to‘ldiraman,
Yusufning avlodini* qutqaraman.
Ularga rahm–shafqat ko‘rsataman,
Axir, Men ularning Egasi Xudoman.
Ularning iltijolariga javob berib,
O‘z yurtiga qaytarib olib kelaman.
O‘shanda ular hech qachon rad qilinmaganday bo‘ladi.
7 Efrayim xalqi* qudratli jangchilarday bo‘ladi,
Ularning yuraklari sharob ichgandagi singari quvnoq bo‘ladi.
Buni ko‘rgan farzandlari shodlanadi,
Ular Mening qilgan ishlarimdan xursand bo‘ladi.
8 Men cho‘pon kabi hushtak chalib, O‘z xalqimni yig‘aman,
Axir, Men ularni qutqarganman.
Oldin ular qancha bo‘lgan bo‘lsalar,
Ularning soni yana shuncha bo‘ladi.
9 Men ularni xalqlarning orasiga sochib yuborgan bo‘lsam ham*,
Eng uzoqdagi yurtlarda ham ular Meni eslaydilar.
Farzandlariyu o‘zlari omon qolib, qaytib kelishadi.
10 Men xalqimni Misr yurtidan qaytaraman,
Ossuriya yeridan* yig‘ib kelaman.

Men ularni Gilad oʻlkasi
Va Lubnon yurtigacha boʻlgan yerlarga joylashtiraman.
Hatto mana shu joylar ham ularga torlik qiladi.
11 Mening xalqim kulfat dengizidan oʻtsa,
Oʻsha dengizning toʻlqinlarini urib tushiraman.
Nil daryosining tubi qurib qoladi.
Ossuriya xalqining takabburligiga barham beraman.
Misr esa oʻz saltanat hassasini* yoʻqotadi.
12 Oʻz qudratim bilan xalqimni kuchli qilaman.
Ular Mening nomimga loyiq hayot kechiradilar.”
Egamizning kalomi shudir.

11–BOB

Bosqinchilarning qulashi

1 Ey Lubnon, och darvozalaringni!
Sadr daraxtlaringni* olov yondirib tashlasin.
2 Ey sarv daraxti, dod solib yigʻlagin,
Axir, sadr daraxtlari quladi.
Oʻsha ulugʻvor daraxtlar vayron boʻldi.
Ey Bashandagi* emanlar, dod solib yigʻlang,
Qalin–qalin oʻrmonlarning daraxtlari
Kesib tashlandi, axir.
3 Ana, eshiting! Choʻponlarning yigʻisin,
Koʻm–koʻk yaylovlar nobud boʻldi, axir.
Quloq soling sherlarning oʻkirishiga,
Iordan butazorlari nobud boʻldi, axir.

Ikki xil choʻpon

4 Egam Xudo menga shunday dedi:

— Boʻgʻizlanishga olib ketilayotgan qoʻy suruviga choʻponlik qilgin. 5 Qoʻylarni sotib olganlar ularni oʻldirib, jazosiz yuribdilar. Qoʻylarni sotganlar esa: “Xudoga shukur! Biz boymiz”, deydilar. Qoʻylarga hatto oʻz choʻponlarining ham rahmi kelmaydi. 6 Men, Egangiz, shunday aytmoqdaman: “Endi bu yurtdagi odamlarga rahm qilmayman. Men ularni bir–birining qoʻliga va hukmdorlarining qoʻliga topshiraman. Hukmdorlari yurtni vayron qiladi. Men esa hech kimni bu hukmdorlarning qoʻlidan qutqarmayman.”

7 Shunday qilib, qoʻy savdogarlari meni boʻgʻizlanadigan qoʻy suruviga choʻpon* qilib yolladilar*. Men ikkita tayoq oldim. Ulardan birini “Iltifot”, ikkinchisini esa “Ahillik” deb atab, qoʻylarni boqdim. 8 Bir oy ichida ularning uchta choʻponini haydab yubordim. Qoʻy savdogarlariga boʻlgan sabr–toqatim ham tugadi, ular ham meni yomon koʻrib qoldilar. 9 Shundan keyin men qoʻy savdogarlariga:

— Endi sizlarning qoʻylaringizni boqmayman, — dedim. — Oʻladigani oʻlsin, halok boʻladigani halok boʻlsin, qolganlari esa bir–birining goʻshtini yesin.

10 Men “Iltifot” nomli tayogʻimni oldim–da, uni sindirib tashladim. Shu orqali Egamizning Oʻz xalqi* bilan qilgan ahdini bekor qildim. 11 Shunday qilib, oʻsha kuni bu ahd bekor boʻldi. Meni kuzatib turgan qoʻy savdogarlari* bu ish Egamizning soʻzi

ekanligini tushundilar. 12 Keyin men ularga shunday dedim:
— Agar sizlar ish haqimni berishni lozim koʻrsangiz, beringlar, boʻlmasa, bermay qoʻyaveringlar.
Shunda ular menga bor–yoʻgʻi oʻttiz kumush tanga* berdilar. 13 Shundan keyin Egamiz menga:
— Bu kumushni kulolga bergin, — dedi.
Meni baholab berilgan bu arzimas kumush tangalarni olib, Egamiz uyidagi kulolga* berdim. 14 Keyin “Ahillik” deb atalgan ikkinchi tayogʻimni sindirdim. Shunday qilib, Yahudo va Isroil* orasidagi birodarlikni bekor qildim.
15 Shundan keyin Egamiz menga aytdi: “Bor, yana bir marta choʻponlik qilgin. Ammo bu safar foydasiz choʻponday boʻlgin. 16 Ha, Men bu yurtga shunday bir choʻpon beramanki, u halok boʻlayotganlarga qaramaydi. Yoʻqolganlarni izlamaydi, yaradorlarga shifo bermaydi, sogʻ boʻlganlarni oziqlantirmaydi. Aksincha, semiz qoʻylarni soʻyib yeydi, tuyoqlarini ham kesib tashlaydi.

17 Ey suruvni tark etadigan qadrsiz choʻponim,
Holingga voy!
Qilich sening qoʻlingni chopib,
Oʻng koʻzingni oʻyib tashlasin!
Sening qoʻling butunlay qurib qolsin,
Oʻng koʻzing koʻr boʻlsin!”

12–BOB

Quddusning kelajakdagi gʻalabasi

1 Bashorat. Egamizning Isroil* haqida aytgan gaplari. Zamin poydevorini qoʻygan, falaklarni yoygan, insonga jon ato qilgan Egamiz shunday demoqda: 2 “Qarab turinglar, Men Quddusni sharob qadahiday qilib qoʻyaman. U oʻzining atrofidagi xalqlarni gandiraklatadigan boʻladi*. Quddusni qamalga olishganda, Yahudo yurtining qolgan boshqa joylariga ham hujum qilishadi. 3 Oʻsha kuni Men Quddusni boshqa xalqlar uchun ogʻir toshday qilib qoʻyaman. Uni koʻtarganlarning hammasi oʻzlariga zarar keltiradilar. Butun yer yuzidagi xalqlar unga qarshi chiqish uchun birlashadilar. 4 Oʻsha kuni, Men har bir otni dahshatga solaman, ularning chavandozlarini esa aqldan ozdiraman, — demoqda Egamiz. — Yahudo xalqiga esa Oʻzim gʻamxoʻrlik qilaman. Dushmanlarining otlarini koʻr qilib qoʻyaman. 5 Shunda Yahudo urugʻlari oʻzlariga:
— Quddus aholisining qudrat manbai bizning Xudoyimiz, Sarvari Olamdir, — deydilar.
6 Oʻsha kuni Men Yahudo urugʻlarini oʻtin orasidagi qizib turgan choʻgʻday, bugʻdoy bogʻlamlari orasidagi yonib turgan mash’aladay qilaman. Ular oʻngu soʻldagi, atrofidagi xalqlarni yamlab yutadilar. Quddusdagi odamlar esa osoyishta hayot kechiradilar.
7 Men, Egangiz, avval Yahudo xalqiga gʻalaba beraman. Dovud avlodining va Quddus aholisining shuhrati Yahudoning shuhratidan oshib ketmasligi uchun shunday qilaman. 8 Oʻsha kuni Men Quddus aholisini himoya qilaman. Ularning orasidagi eng ojizi ham Dovudday kuchli boʻladi. Dovud avlodi esa Mening farishtamday, xuddi Oʻzimday Quddus ahlini boshlab boradi. 9 Mening rejam oʻsha kuni Quddusga qarshi chiqqan

barcha xalqlarni halok qilishdir.
10 Men Dovud avlodiga, Quddus aholisiga mehr–shafqat va ibodat ruhini
yog‘diraman. Ular Menga — o‘zlari nayza sanchganga qarashadi. Yolg‘iz farzandga aza
tutganday, aza tutishadi. To‘ng‘ich farzand uchun motam tutganday, motam tutishadi.
11 O‘sha kuni Quddusdagi dod–faryod, Magido‘ vodiysidagi Hadad–Rimmonda* tutilgan
azaday, kuchli bo‘ladi. 12 Butun yurt aza tutadi. Har bir oila alohida aza tutadi: Dovud
avlodining oilalari alohida, ularning xotinlari alohida, Natan* avlodining oilalari alohida,
ularning xotinlari alohida, 13 Levi avlodining oilalari alohida, ularning xotinlari alohida,
Shimax* avlodining oilasi va ularning xotinlari alohida aza tutadilar. 14 Qolgan oilalar
ham o‘zlari alohida aza tutadilar. Ularning xotinlari ham alohida aza tutadilar.”

13–BOB

1-2 Sarvari Olam shunday aytmoqda: “O‘sha kuni Dovud avlodi va Quddus aholisi
uchun bir buloq ochiladi. Bu buloq ularning barcha gunohlari va nopokliklarini yuvadi.
O‘sha kuni Men bu yurtdan barcha butlarni yo‘q qilaman. Hatto ularning nomlari
ham unutiladi. Men bu yurtdan yana soxta payg‘ambarlarni va ularni ilhomlantiradigan
yovuz ruhni olib tashlayman. 3 Agar yana soxta payg‘ambar chiqsa, o‘z ota–onasi unga
shunday deydi:
— Sen endi yashamaysan, chunki sen Egamiz nomidan yolg‘on gaplarni gapiryapsan.
O‘sha payg‘ambar yana bashorat qilganda o‘z tuqqan ota–onasi uni nayza sanchib
o‘ldiradi. 4 O‘sha kuni soxta payg‘ambarlarning har biri o‘zlarining bashoratlaridan
uyatga qoladilar. Ular endi xalqni aldamaydilar, payg‘ambarlarning jundan to‘qilgan
kiyimlarini kiymaydilar. 5 Endi ular:
— Men payg‘ambar emasman, men yerga ishlov beraman. Yoshligimdan bir
kishining xizmatidaman, — deydilar. 6 Agar birortasi ulardan:
— Badaningizdagi yara izlari* qayerdan paydo bo‘lgan? — deb so‘rasa, ularning
javobi quyidagicha bo‘ladi:
— Men bu yaralarni do‘stlarimning uyida orttirganman.”

Xudoning cho‘ponini o‘ldirish haqidagi amr

7 Sarvari Olam shunday demoqda:
“Qani, qo‘zg‘algin, ey qilich!
Menga yaqin bo‘lganga,
O‘zimga xizmat qilgan cho‘ponga qarshi chiq.
Cho‘ponga hamla qilgin,
Shunda qo‘ylar har yoqqa tarqalib ketadi,
Men qo‘zichoqlarga qarshi qo‘limni ko‘taraman.
8 Butun yurt xalqining uchdan ikki qismi halok bo‘ladi,
— deb aytmoqda Egamiz. —
Uchdan bir qismi esa tirik qoladi.
9 Men mana shu qolgan uchdan bir qismini
Olovdan o‘tkazib poklaganday poklayman.
Ularni kumushni toblaganday toblayman,
Oltinni sinaganday sinayman.
Ular Menga iltijo qiladilar,

Men esa ularga javob beraman.
«Ular Mening xalqimdir», deyman Men.
Ular esa: «Egamiz bizning Xudoyimizdir», deb aytishadi.”

14–BOB

Kelajakdagi urush va g‘alaba

1 Egamizning kuniga* oz qoldi. Ey Quddus ahli, o‘sha kuni mulkingiz ko‘z oldingizda
talon–taroj qilinadi. 2 Egamiz barcha xalqlarni Quddusga qarshi jang qilishga yig‘adi.
Dushmanlar shaharni qo‘lga kiritishadi. Uylarni talab ketishadi, ayollarni zo‘rlashadi.
Shahar aholisining yarmi surgunga ketadi. Qolganlari esa shahardan haydalmaydi.
3 Shundan keyin Egamiz urushdagi jangchiday o‘sha xalqlarga hujum qiladi. 4 O‘sha
kuni U Quddus shahrining sharqida bo‘lgan Zaytun tog‘ining ustida turadi. Shu kuni
Zaytun tog‘i ikkiga ajraladi. Tog‘ orasidan sharqdan g‘arbga qarab ketgan keng bir vodiy
o‘tadi. Shunda tog‘ning bir tarafi shimolga, ikkinchi tarafi esa janubga suriladi. 5 Sizlar
o‘sha vodiy orqali qochasizlar. Tog‘lar orasidagi vodiy Oziyolgacha* cho‘ziladi. Sizlar
Yahudo shohi Uzziyo davrida bo‘lgan zilzila* paytida qochganday qochasizlar. Shunda
Egamiz Xudo O‘z farishtalari bilan birga keladi.
6 O‘sha kuni barcha yorug‘lik manbalari so‘nib, nur taratmaydigan bo‘lib qoladi.
7 Ammo kun davom etaveradi. Shunda kun ham, tun ham bo‘lmaydi. Kech kirganda ham
yorug‘ bo‘lib turaveradi. Bu qachon sodir bo‘lishini faqatgina Egamiz biladi.
8 O‘sha kuni Quddusdan hayotbaxsh suvlar oqib chiqadi, uning yarmi O‘lik dengizga,
qolgan yarmi esa O‘rta yer dengiziga quyiladi. Suv yozda ham, qishda ham oqaveradi.
9 Egamiz esa butun yer yuzining Shohi bo‘ladi. O‘sha kuni barcha xalqlar Egamizni
tanho Ega deb tan oladi va faqat Unga sajda qilishadi.
10 Shimoldagi Gebodan Quddusning janubidagi Rimmongacha bo‘lgan joylar, butun
yurt* tekislikka aylanadi. Quddus esa o‘zining yuksak joyida turaveradi. Shahar
Benyamin darvozasidan Eski darvozagacha, Burchak darvozasigacha, Xanonil
minorasidan shohga qarashli bo‘lgan uzum siqish chuqurigacha* cho‘zilgan bo‘ladi.
11 Quddusda yana odamlar yashaydigan bo‘ladi, bundan keyin uni hech qachon vayron
qilishmaydi. Quddusda tinchlik qaror topadi.
12 Quddusga qarshi urush ochgan xalqlarning boshiga Egamiz quyidagi o‘latni
yuboradi: tirik bo‘lsalar ham tanasi chirib ketadi, ko‘zlari kosasidayoq chirib ketadi,
tillari esa og‘izlaridayoq chirib ketadi. 13 O‘sha kuni Egamiz ularni benihoya dahshatga
tushiradi. Hamma o‘z yonidagi odamni ushlab, bir–biriga qarshi qo‘l ko‘taradi. 14 Hatto
Yahudo xalqi ham Quddusdagi jangga qo‘shiladi. Uning atrofidagi barcha xalqlarning
boyliklari — juda ko‘p tilla, kumush va kiyimlar o‘lja qilib olinadi. 15 Yuqorida aytilgan
o‘lat dushmanlarning qarorgohidagi hamma hayvonlarga — otlarga, xachirlarga,
tuyalarga, eshaklarga ham qirg‘in keltiradi.
16 Quddusga qarshi urush ochganlardan tirik qolganlari esa har yili Shoh — Sarvari
Olamga sajda qilishga va Chayla bayramini nishonlashga kelishadi. 17 Agar yer yuzidagi
xalqlarning birortasi Shoh — Sarvari Olamga sajda qilish uchun Quddusga kelmasa,
ularning yurtida yomg‘ir yog‘maydi. 18 Agar Misr xalqi ham bayramga kelishni rad etsa,
ularning yurtida ham yomg‘ir yog‘maydi. Egamiz* Chayla bayramiga kelishni rad etgan
boshqa xalqlarning boshiga solgan o‘sha kulfatni ularning boshiga ham soladi. 19 Chayla

bayramini nishonlashga chiqmagan Misr xalqi va boshqa hamma xalqlarning jazosi shu bo‘ladi.

20 O‘sha kuni hatto otlarning yuganlaridagi qo‘ng‘iroqlarida ham “Egamizga bag‘ishlangan”* degan yozuv bo‘ladi. Qurbongoh oldida ishlatiladigan tog‘orachalar muqaddas bo‘lgani kabi, Egamizning uyidagi oddiy qozonlar ham xuddi shunday muqaddas bo‘ladi. 21 Quddus va Yahudodagi barcha qozonlar Sarvari Olamga bag‘ishlangan bo‘ladi. Shunda kim qurbonlik keltirmoqchi bo‘lsa, qurbonlik go‘shtini shu qozonlarda qaynatsa bo‘laveradi. O‘sha kuni Mening uyimda savdogarlar* boshqa bo‘lmaydi.

IZOHLAR

Zakariyo payg‘ambar Xaggey payg‘ambarning zamondoshi… — Ezra 5:1-2 ga qarang.

Yahudo yurti — o‘sha davrda Yahudo yurti Fors shohligining hukmronligi ostida bo‘lgan. Yahudo yurti hududiga faqat Quddus va uning atrofidagi yerlar kirardi. Yahudo shohlari hukmronlik qilgan davrda esa bu yurtning hududi ancha katta edi.

1:1 *Shoh Doro hukmronligining ikkinchi yili* — miloddan oldingi 520 yil. Doro miloddan oldingi 522-486 yillarda Fors shohligida hukmronlik qilgan.

1:1 *sakkizinchi oy* — ibroniy kalendarining Bul oyi nazarda tutilgan. Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan oktabrning o‘rtasidan boshlanadi.

1:7 *Shoh Doro hukmronligining ikkinchi yili* — shu bobning 1–oyatiga berilgan birinchi izohga qarang.

1:7 *Shebat oyi* — ibroniy kalendarining o‘n birinchi oyi. Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan yanvarning o‘rtasidan boshlanadi.

1:8 *Egamizning farishtasi* — ibroniycha matnda *odam*. Shu bobning 11-12–oyatlarida aytib o‘tilgan Egamizning farishtasiga ishora.

1:8 *mirta butalari* — doim yashil, xushbo‘y o‘simlik.

1:10 *farishta* — ibroniycha matnda *odam*. Shu bobning 11-12–oyatlarida aytib o‘tilgan Egamizning farishtasiga ishora.

1:12 *yetmish yil* — Quddus aholisi va Yahudo xalqi Bobilda surgunda yashagan davr.

1:14 *Sion* — Quddusdagi Ma’bad qurilgan tepalik Sion tog‘i deb atalgan. Eski Ahddagi she’riy parchalarda va payg‘ambarlar bitiklarida Sion so‘zi ko‘pincha Quddus shahriga yoki Xudoning xalqiga nisbatan ishlatilgan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi SION so‘ziga qarang.

1:18 *buqaning to‘rtta shoxi* — Eski Ahdda buqaning shoxlari ko‘pincha ko‘chma ma’noda ishlatilib, kuchli hukmdorlarga yoki harbiy qudratga ishora qilgan. To‘rt soni ramziy ma’noda ishlatilgan bo‘lib, dunyoning to‘rt tomonini bildiradi. Bu o‘rinda dushmanlar Yahudo, Isroil xalqlarini va Quddus aholisini har tomondan qurshab olib, qiyin ahvolga solib qo‘ygani anglashiladi.

1:19 *Yahudo, Isroil* — janubiy va shimoliy shohliklar nazarda tutilgan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi YAHUDO va ISROIL so‘zlariga qarang.

1:19 *Yahudo, Isroil xalqlarini va Quddus aholisini sochib tashlagan hukmdorlar* — miloddan oldingi 722 yilda Ossuriya shohi Shalmanasar Isroilga, ya’ni shimoliy shohlikka hujum qilib, poytaxti Samariyani zabt etdi. So‘ng Isroil xalqining aksariyat qismini Ossuriyaga surgun qildi (4 Shohlar 17:1-6 ga qarang). Miloddan oldingi 586 yilda Bobil shohi Navuxadnazar Quddusni vayron qilib, aholining asosiy qismini Bobilga surgun qildi (4 Shohlar 25:1-21 ga qarang). Yahudodan qochib ketganlar esa Mo‘ab, Ommon, Edom va Misr yurtlarida boshpana topdilar (Yeremiyo 40:11-12, 43:7 ga qarang).

2:1 *tanob* — yerni o‘lchash uchun ishlatiladigan arqon.

2:4-5 *o‘sha yigit* — arqonni ushlab turgan yigit nazarda tutilgan. Ammo Zakariyoga ishora bo‘lishi mumkin.

2:6 *Men sizlarni yerning to‘rt tarafiga sochib tashlagan bo‘lsam ham…* — 1:19 ning ikkinchi izohiga qarang.

2:7 *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion* (shu bobning 10–oyatida ham bor). 1:14 izohiga qarang.

2:8 *Sizlarni…U O‘z shuhratini namoyon qilmoqchi* — yoki *Sarvari Olam — ulug‘vor Xudo sizlarni talon–taroj qilgan xalqlar oldiga meni yubordi*.

3:1 *shayton* — ibroniychadagi ma’nosi *ayblovchi*.

3:4 *atrofida turganlar* — o‘sha yerdagi farishtalarga ishora bo‘lsa kerak.

3:7 *Senga shu yerda turganlar orasidan joy beraman* — ya’ni o‘sha yerdagi farishtalarga o‘xshab, Yoshua ham Xudoga xizmat qilish va Xudoning huzuriga kirish sharafiga muyassar bo‘lar edi.

3:8 *«Novda»* — Dovud avlodidan kelib chiqadigan shohga, ya’ni Masihga nisbatan ishlatilgan unvon (Ishayo 11:1, Yeremiyo 23:5, 33:15 ga qarang). To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi MASIH so‘ziga qarang.

4:4 *Bular nima, ey to‘ram?* — bu savolga farishta shu bobning 10–oyati ikkinchi qismida javob beradi.

4:6 *Zarubabel* — Yahudo hokimi. Xaggey 1:1 ga va o‘sha oyatning uchinchi va to‘rtinchi izohlariga qarang.

4:7 *baland tog‘* — bu ibora majoziy ma’noda qo‘llangan bo‘lib, Zarubabel Ma’badni qayta qurishda duch kelgan qiyinchiliklarga va qarshiliklarga ishora bo‘lsa kerak. Zarubabel bu qiyinchiliklarni yengib o‘tgan edi, tog‘larning tekislikka aylanishi ana shu g‘alabaning ramzidir.

4:10 *yozuv o‘yilgan tosh* — yoki *shoqul*. Shoqul — binokorlikda devor, ustun va shu kabilarning vertikal holatini aniqlash uchun ishlatiladigan, bir uchiga og‘irlik bog‘langan ipdan iborat asbob.

4:14 *Bular…ikki zotdir* — oliy ruhoniy Yoshua (3:1-6 ga qarang) va Yahudo hokimi Zarubabel (shu bobning 6-10–oyatlariga qarang) nazarda tutilgan. Zarubabel Dovud avlodidan edi.

5:1 *o‘rama bir qog‘oz* — papirus yoki oshlangan teridan qilingan uzun o‘ralgan qog‘oz. Qadimgi paytlarda kitoblar odatda o‘rama qog‘oz shaklida bo‘lgan.

5:2 *…uzunligi yigirma tirsak, eni esa o‘n tirsak…* — uzunligi taxminan 9 metrga, eni taxminan 4,5 metrga to‘g‘ri keladi.

5:11 *Bobil* — ibroniycha matnda *Shinar*, Mesopotamiyadagi, ya’ni Dajla va Furot daryolari orasida joylashgan yerlardagi bir hududning qadimgi nomi. Bobil shohligi dastlab shu yerda barpo bo‘lib, keyinchalik ko‘p yerlarni egallagan buyuk shohlik bo‘lgan.

6:6 *…uning orqasidan ketadi* — yoki *…g‘arbga boradi*.

6:8 *shimoldagi yurt* — Bobil nazarda tutilgan.

6:8 *...Egamizning irodasini ado etishdi, Egamiz jahlidan tushdi* — ibroniycha matnda *...Egamizning Ruhiga tinchlik berishdi*. Bu ibora Xudoning xalqiga zulm o'tkazgan xalqlar (1:15 ga qarang) jazo olganini bildirishi mumkin. Miloddan oldingi 539 yilda Fors shohi Kurush Bobilni bosib oldi va keyingi yili o'sha yerda surgunda yashayotgan yahudiylarga Quddusga qaytishlari uchun hamda Ma'badni qayta qurishlari uchun ijozat berdi (2 Solnomalar 36:20-23, Ishayo 44:28-45:4 ga qarang).

6:12 *Novda* — Zarubabel nazarda tutilgan (4:6-10 ga qarang), ayni paytda keladigan Masihga ham ishora qiladi (3:8 izohiga qarang).

6:13 *Taxtining oldida ruhoniy turadi* — oliy ruhoniy Yoshua nazarda tutilgan, ayni paytda ruhoniy va shoh bo'lib keladigan Masihga ham ishora qiladi (Zabur 109:1-4 ga qarang).

6:14 *Xalday* — ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Xalem*. Uning Xalday degan shakli shu bobning 10–oyatidan olingan.

6:14 *Yo'shiyo* — ibroniycha matnda *Xen*, ma'nosi *inoyatli* va Yo'shiyoning yana bir nomi bo'lishi mumkin. Uning Yo'shiyo degan shakli shu bobning 10–oyatidan olingan.

7:1 *Shoh Doro hukmronligining to'rtinchi yili* — miloddan oldingi 518 yil. 1:1 ning birinchi izohiga qarang.

7:1 *Xislav oyi* — ibroniy kalendarining to'qqizinchi oyi. Hozirgi kalendarga ko'ra, bu oy taxminan noyabrning o'rtasidan boshlanadi.

7:3 *Egamizning uyi vayron qilingan oy* — ibroniycha matnda *beshinchi oy*. 8:19 izohiga qarang.

7:5 *yetmish yil* — 1:12 izohiga qarang.

7:5 *beshinchi va yettinchi oylar* — 8:19 izohiga qarang.

7:14 *Men ularni...sochib tashladim* — 1:19 ning ikkinchi izohiga qarang.

8:2 *Quddus* — ibroniycha matnda *Sion*. 1:14 izohiga qarang.

8:3 *Mening tog'im* — Quddusdagi Sion tog'iga ishora. 1:14 izohiga qarang.

8:10 *...ular yaxshi hosil ololmas edilar* — Xaggey 1:6, 10-11, 2:16-17 ga qarang.

8:13 *Yahudo va Isroil* — 1:19 ning birinchi izohiga qarang.

8:19 *to'rtinchi, beshinchi, yettinchi va o'ninchi oylar* — ibroniy kalendarining to'rt oyi. Bu oylarda Xudoning xalqi quyidagi voqealarni xotirlab, ro'za tutardi: miloddan oldingi 589 yilning o'ninchi oyida shoh Navuxadnazarning lashkari Quddusni qamal qilgan. Miloddan oldingi 586 yilning to'rtinchi oyida o'sha lashkar Quddus devorlarini buzib, shaharga kirgan. O'sha yilning beshinchi oyida ular Ma'badni va shaharni vayron qilganlar, shahar aholisini Bobilga asir qilib olib ketganlar. O'sha yilning yettinchi oyida Yahudo hokimi Gadaliyoga suiqasd qilingan, qolgan xalq esa Misrga qochib ketgan. 4 Shohlar 25:1-26 ga qarang.

9:1 *Xadrax yurti* — Damashq va Xomat shaharlaridan sharqda joylashgan.

9:1 *Egamiz barcha Isroil qabilalarini kuzatib turganday, Butun insoniyatni ham kuzatadi* — yoki *Barcha Isroil qabilalarining hamda insoniyatning ko'zlari Egamizdadir*.

9:2 *Xomat* — hozirgi Suriyaning shimolida joylashgan shahar.

9:2 *Tir va Sidon* — Finikiyada muhim ahamiyatga ega bo‘lgan shaharlar. Bu shaharlar Isroildan shimolda, O‘rta yer dengizi bo‘yida joylashgan edi. Bugungi kunda bu yer Livan mamlakatining janubiy qismini tashkil qiladi. Filistlar bu shaharlar bilan ittifoq tuzgan edilar.

9:2 *...Egamizning ko‘zi ostidadir* — yoki *...Egamizga ko‘z tikkan*.

9:5 *Ashqalon shahri* — Filist xalqi quyidagi beshta shahar–davlatni barpo qilgan edi: G‘azo, Ashdod, Ashqalon, Exron va Gat. Bu shaharlar Filistiyada, O‘rta yer dengizi yaqinida joylashgan edi.

9:7 *...qonli go‘sht...harom ovqat...* — Filistlar Xudoning xalqi qatoriga kiradilar, shundan keyin taqiqlangan ovqatlarni yemaydigan bo‘ladilar (Ibtido 9:4, Levilar 11:1-23 ga qarang).

9:7 *Yobus xalqi* — Quddusning tub aholisi. Shoh Dovud shaharni bosib olgandan keyin ular ham Xudoning xalqi qatoriga kirdi (2 Shohlar 5:6-10, 24:16 ga qarang).

9:10 *Efrayim* — Efrayim qabilasi Isroilning shimoliy qismidagi eng katta va nufuzli qabila bo‘lgani bois, Eski Ahdning ba’zi o‘rinlarida Efrayim degan nom Isroilga, ya’ni shimoliy shohlikka nisbatan ishlatilgan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi EFRAYIM so‘ziga qarang.

9:10 *...Efrayim...Quddus...* — bu o‘rinda Zakariyo Xudoning xalqiga tegishli bo‘lgan, qayta tiklangan, birlashgan janubiy va shimoliy shohlikka ishora qilyapti. Hizqiyol 37:15-28 ga qarang.

9:11 *Qurbonlik qoni bilan tasdiqlangan ahdim* — Chiqish 24:1-8 ga qarang.

9:13 *...Yahudo...Efrayim...* — shu bobning 10–oyatiga berilgan izohlarga qarang.

9:13 *Sion* — 1:14 izohiga qarang.

9:13 *Yunon* — ibroniycha matnda *Yovon*, o‘sha vaqtda Yunon xalqi shu nom bilan ham atalardi.

10:2 *Xonaki sanamlar* — ibroniycha matnda *Terafim*. Odamlar bu sanamlardan fol ochishda foydalangan bo‘lsalar kerak.

10:3 *Yahudo* — 1:19 ning birinchi izohiga qarang.

10:4 *tamal toshi* — qadimgi paytlarda qurilishda poydevor uchun qo‘yilgan birinchi va eng muhim tosh hisoblanardi. Bu tosh poydevorning bir burchagini hosil qilib, binoning qolgan qismi o‘sha toshning joylashuvi bo‘yicha qurilardi.

10:6 *Yusufning avlodi* — Isroilning, ya’ni shimoliy shohlik aholisining nasllariga ishora. Shimoliy shohlikning ikkita asosiy qabilasi — Efrayim va Manashe qabilalari Yusufdan kelib chiqqan edilar.

10:7 *Efrayim xalqi* — 9:10 ning birinchi izohiga qarang.

10:9 *Men ularni...sochib yuborgan bo‘lsam ham...* — 1:19 ning ikkinchi izohiga qarang.

10:10 *...Misr yurti...Ossuriya yeri...* — Misr Isroil yurtidan janubda, Ossuriya esa shimolda joylashgan edi.

10:11 *saltanat hassasi* — bu maxsus hassa bo‘lib, shoh va hukmdorlarning hokimiyatini bildiruvchi ramz edi.

11:1 *Sadr daraxtlari* — Lubnon tog‘lari o‘zining katta sadr daraxtlari va go‘zal tabiati bilan mashhur edi (Qonunlar 3:25, Zabur 103:16-17 ga qarang).

11:2 *Bashan* — Jalila ko‘lining shimoli–sharqida joylashgan bo‘lib, o‘zining yam–yashil yaylovlari, gullari va daraxtlari bilan mashhur edi.

11:7 *cho‘pon* — shu bobning 7-14–oyatlariga ko‘ra, Zakariyo cho‘ponlik vazifasini o‘z zimmasiga olar ekan, bu harakat orqali Xudoning O‘z xalqini yetaklashini va ularga g‘amxo‘rlik qilishini majoziy ma’noda ifodalaydi.

11:7 *...qo‘y savdogarlari meni bo‘g‘izlanadigan qo‘y suruviga cho‘pon qilib yolladilar* — qadimiy yunoncha tarjimadan. Ibroniycha matnda *...men bo‘g‘izlanadigan, qattiq zulm ko‘rgan qo‘y suruviga cho‘pon bo‘ldim*. Yana shu bobning 11–oyatiga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

11:10 *O‘z xalqi* — ibroniycha matnda *hamma xalqlar*. Bu o‘rinda Isroil xalqining hamma qabilalariga, ya’ni Xudoning xalqiga she’riy usulda ishora qilingan bo‘lishi mumkin. Xudo hamma xalqlar bilan ahd tuzgani haqida Eski Ahdning biron joyida aytilmagan.

11:11 *Meni kuzatib turgan qo‘y savdogarlari...* — qadimiy yunoncha tarjimadan. Ibroniycha matnda *Meni kuzatib turgan, qattiq zulm ko‘rgan suruv...*.

11:12 *o‘ttiz kumush tanga* — ibroniycha matnda *o‘ttiz bo‘lak kumush*, taxminan 330 grammga to‘g‘ri keladi. Qulning narxi o‘ttiz kumush tanga bo‘lgani bois (Chiqish 21:32 ga qarang), Zakariyo payg‘ambarga to‘langan bu narx uning o‘ziga ham, Xudoga ham qattiq haqorat edi.

11:13 *...kulolga...kulolga...* — ibroniycha matndan. Qadimiy suryoniycha tarjimada *...xazinaga...xazinaga...*, Ma’bad xazinasiga ishora. Eritilishdan oldin ba’zi qimmatbaho metallar loy idishlarda saqlangan. Ba’zan metallga ishlov beruvchi usta eritilgan metallni loy idishlarga quyib, keyinchalik ishlatish uchun saqlab qo‘yardi. Mana shu sabablarga ko‘ra, ko‘p olimlar bu o‘rinda ishlatilgan *kulol* so‘zi metallni eritib, unga ishlov beradigan odamga ishora qiladi, deb aytadilar.

11:14 *Yahudo va Isroil* — bir paytlar Yahudo nomi janubiy shohlikka, Isroil esa shimoliy shohlikka nisbatan ishlatilgan (to‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi YAHUDO va ISROIL so‘zlariga qarang). Zakariyo davriga kelib, o‘sha shohliklar yo‘q bo‘lib ketgan edi. Shu sababdan mazkur oyatdagi bu nomlar Xudoning jamiki xalqiga ishora qiladi.

12:1 *Isroil* — bu o‘rinda Xudoning jamiki xalqi nazarda tutilgan (11:14 izohiga qarang).

12:2 *U o‘zining atrofidagi xalqlarni gandiraklatadigan bo‘ladi* — bu o‘rinda sharob Xudo g‘azabining ramzi bo‘lib, sharobdan mast bo‘lish Xudoning hukmiga duchor bo‘lishni bildiradi (Ishayo 51:17-23, Yeremiyo 25:15-29 ga qarang). Xalqlar Quddusga hujum qilsalar, ularning o‘zlari halok bo‘ladilar.

12:11 *Hadad–Rimmon* — Yahudoning oxirgi solih shohi Yo‘shiyo aza tutish uchun borib turadigan joyning nomi bo‘lishi mumkin. Yo‘shiyo Magido‘ tekisligida bo‘lgan jangda o‘ldirilgan (2 Solnomalar 35:20-25 ga qarang).

12:12 *Natan* — Dovudning o‘g‘illaridan biri (2 Shohlar 5:14 ga qarang).

12:13 *Shimax* — Levining nabiralaridan biri (Sahroda 3:17-18 ga qarang).

13:6 *Badaningizdagi yara izlari* — Kan'on xalqlarining xudolariga xizmat qiladigan payg'ambarlar ba'zan badanlarini tilardilar (3 Shohlar 18:28 ga qarang). Badanlaridagi yara izlari ularning soxta payg'ambar bo'lganining dalili edi.

14:1 *Egamizning kuni* — Eski Ahddagi payg'ambarlar bitiklarida bir necha marta uchraydigan ibora. Ko'pincha bu ibora Xudo beradigan jazoga ishora qiladi. Bu ibora yana qiyomat kunidagi Xudoning hukmiga nisbatan ham ishlatiladi. O'sha kuni Xudo O'z dushmanlari ustidan g'alaba qozonadi va ularni jazolaydi, O'ziga sodiq qolganlarga esa orom bag'ishlaydi, ularga tinchlik va qut–barakalar ato qiladi.

14:5 *Oziyol* — bu joy haqida hech qanday ma'lumot yo'q. Shu bobning 4–oyatida tasvirlanishicha, bu joy Quddusdan sharqda bo'lgan, deb taxmin qilish mumkin.

14:5 *Yahudo shohi Uzziyo davrida bo'lgan zilzila* — Yahudo shohi Uzziyo davrida (ya'ni miloddan oldingi 781-740 yillarda) qattiq zilzila bo'lgani tarixdan ma'lum. Bu zilzila haqida Amos 1:1 da ham aytib o'tilgan.

14:10 *Shimoldagi Gebodan Quddusning janubidagi Rimmongacha bo'lgan joylar, butun yurt...* — Yahudo yurtiga ishora. Bobilliklar Yahudoni bosib olishlaridan oldin, Gebo va Rimmon shaharlari Yahudoning shimoliy va janubiy chegaralariga yaqin yerda joylashgan edi (1:19 ning izohlariga qarang).

14:10 *uzum siqish chuquri* — qadimgi paytlarda odamlar uzumni qoyatoshga o'yilgan chuqurga yoki tuproqdan qazilgan, tubiga va atrofiga zich qilib tosh terilgan chuqurga solib, sharbatini siqib olish uchun oyoqlari bilan ezardilar. Sharbat o'sha chuqurdan yana boshqa bir chuqurga oqib tushardi.

14:18 *...ularning yurtida ham yomg'ir yog'maydi. Egamiz...* — yoki *...ular Quddusga bormasa, Egamiz...*.

14:20 *"Egamizga bag'ishlangan"* — tilla lavhaga o'yib yozilgan bu yozuvni oliy ruhoniy sallasining old tomoniga taqib yurardi (Chiqish 28:36-38 ga qarang). Oyatning mazmuniga ko'ra, Egamizning kuni kelganda hamma narsa muqaddas, Xudoning xizmatiga bag'ishlangan bo'ladi.

14:21 *savdogarlar* — ibroniycha matnda *Kan'onliklar*. Ba'zi o'rinlarda Kan'onliklar so'zi savdogarlarga nisbatan ishlatilgan. Oyat mazmuniga ko'ra, Ma'badda sajda qiluvchilar bundan keyin savdogarlardan poklangan idishlar sotib olishga majbur bo'lmaydilar, chunki hamma idishlar muqaddas bo'ladi. Yoki Zakariyo *Kan'onliklar* so'zi orqali Xudoga chin dildan itoat etmaydigan, Unga sajda qilmaydigan odamlarga ishora qilgan bo'lishi mumkin.

MALAKI

PAYG‘AMBARNING KITOBI

Kirish

Malaki payg‘ambar Naximiyoning zamondoshi bo‘lib, taxminan miloddan oldingi 430 yillarda* faoliyat ko‘rsatgan. O‘sha vaqtda Quddusdagi Ma’bad qayta qurilib bo‘lgan va Bobil asirligidagi yahudiylarning asosiy qismi o‘z yurtiga qaytib kelgandi. Ularning vatani Fors imperiyasiga qaram edi.

Yahudiylar uchun bu nihoyatda mashaqqatli damlar edi. Kichkinagina Yahudo yurti buyuk Fors imperiyasining arzimas bir qismi bo‘lgani bois, odamlar o‘zlarining porloq kelajagiga umidini yo‘qotgan edilar. Qurilgan yangi Ma’badda Xudo O‘z ulug‘vorligi va qudratini hamon zohir qilmagani uchun, xalq Uning sodiq sevgisiga va odilligiga shubha qilardi. Shu sababdan ular Xudoga lozim bo‘lgan darajada izzat–ikrom ko‘rsatmasdilar, Ma’badga e’tiborsiz bo‘lardilar, Xudoga ma’qul bo‘lmagan qurbonliklar keltirar edilar. Ular Xudoning qonunlariga rioya qilmasdilar, kambag‘al va yetim–yesirlarga yomon muomalada bo‘lib, xotinlari bilan ajrashar edilar. Ushr* va ehsonlarni Ma’badga olib kelmas edilar, bu esa Xudoning nazarida o‘g‘rilik edi.

Malaki payg‘ambar xalqni ogohlantiradi, Egamizning kelishi haqida xabar berib, Xudo O‘z xalqini hukm qilishini, ularni poklashini e’lon qiladi. Egamiz kelishidan oldin yo‘l hozirlaydigan elchisini yuboradi. Xudoning O‘z xalqiga baraka berishi va xalqning yorqin kelajagi haqidagi bashoratlar ham kitobdan o‘rin olgan.

1–BOB

[1] Bashorat. Malaki payg‘ambar orqali Isroil xalqiga Egamiz quyidagi so‘zlarni ayon qildi.

Xudoning Isroil xalqiga bo‘lgan sevgisi

[2] Egamiz shunday deydi:

— Men sizlarni sevdim. Sizlar esa: “Bizga sevgingni qanday namoyon qilding?” deb so‘raysizlar. Esov Yoqubning akasi emasmidi?! — deydi Egamiz. — Shunday bo‘lsa–da, Men Yoqubni yaxshi ko‘rib, [3] Esovdan nafratlandim. Esovga berilgan qirlarni xarob qildim, meros bo‘lgan o‘sha yerlarini chiyabo‘rilarga berdim.

[4] Bordi–yu, Edom xalqi*:

— Shaharlarimiz vayron bo‘ldi, ammo biz ularni tiklab olamiz, — degudek bo‘lsalar, Sarvari Olam ularga shunday javob beradi:

— Shaharlarini tiklasinlar, Men esa ularni yana vayron qilaveraman. Shunda odamlar Edom haqida: “Bu yovuzlar yurti, Egamiz ulardan abadiy g‘azablangan”, deb aytadigan bo‘lishadi. [5] Ey Isroil xalqi, buni sizlar o‘z ko‘zingiz bilan ko‘rib: “Egamizning qudrati yurtimizning chegaralari bilan cheklanmas”, deb aytadigan bo‘lasiz.

Egamiz ruhoniylarga tanbeh beradi

[6] Sarvari Olam shunday deydi:

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

— Ey ruhoniylar, o‘g‘il otasini hurmat qiladi–ku! Xizmatkor xo‘jayinidan qo‘rqadi–ku! Agar Men Otangiz bo‘lsam, nega Meni hurmat qilmaysiz? Agar Xo‘jayiningiz bo‘lsam, nega Mendan qo‘rqmaysiz? Sizlar Meni xo‘rlayapsiz. Yana: “Qanday qilib Seni xo‘rlabmiz?” deb so‘raysiz. 7 Sizlar qurbongohimga harom nazrlar olib kelib, Meni xo‘rlayapsiz. Yana: “Qanday qilib Seni haqorat qilibmiz?” deb so‘raysiz. Sizlar: “Egamizning dasturxonini* pisand qilmasa ham bo‘ladi”, deb aytasiz. Shu orqali Meni haqoratlagan bo‘lasiz. 8 Ko‘r molni qurbonlik qilayotganingiz to‘g‘rimi?! Cho‘loq, kasalmand molni qurbonlik qilayotganingiz to‘g‘rimi?! O‘shani hukmdoringizga taqdim qilib ko‘ring–chi. U sizlardan mamnun bo‘lib, iltifot qilarmikan?! — deydi Sarvari Olam. 9 — Ey ruhoniylar, ayb o‘zingizda. Qani: “Bizga baraka ber!” deb Men, Xudoga yolvorib ko‘ringlar–chi. Bunday qilmishlaringiz uchun Men birontangizga baraka berarmikinman?! — deydi Sarvari Olam. 10 — Qaniydi, birortangiz Ma’bad eshiklarini yopib tashlaganingizda! Shunda ichkariga kirib qurbongohim ustida behuda olov yondirmagan bo‘lar edingiz! Men sizlardan mamnun emasman, nazrlaringizni qabul qilmayman, — deydi Sarvari Olam. 11 — Zero, dunyoning u chekkasidan bu chekkasigacha bo‘lgan barcha xalqlar orasida Mening nomim ulug‘lanmoqda. Butun yer yuzida Menga atab tutatqilar tutatilmoqda, halol qurbonliklar keltirilmoqda. Ha, xalqlar orasida buyukdir Mening nomim! — deydi Sarvari Olam. 12 — Sizlar esa: “Rabbiyga arzimas nazrlar keltirsak ham bo‘laveradi”, deya Mening dasturxonimni* bulg‘ayapsizlar. 13 Yana: “Bularning hammasidan charchab ketdik”, deya yuzlaringizni burishtiryapsizlar, — deydi Sarvari Olam. — Sizlar cho‘loq, kasalmand yoki birovdan tortib olingan jonivorni qurbonlik qilasizlar! Men esa o‘shani qabul qilishim kerakmi?! — deydi Egamiz. 14 — La’natisizlar! Podangizdagi bir qo‘chqorni Men, Rabbiyga atab qo‘ygansizlar–u, lekin o‘rniga nuqsonli jonivorni qurbonlik qilyapsizlar. Men buyuk Shohman, — deydi Sarvari Olam. — Mening nomim xalqlar orasida izzat–ikrom bilan tilga olinar.

2–BOB

1-2 Sarvari Olam shunday deydi: “Ey ruhoniylar, endi sizlarga amrim shudir: Menga quloq soling. Chin yurakdan nomimni ulug‘lang. Aks holda, ustingizga la’natlar yog‘diraman, barakalaringizni la’nati qilaman. Darvoqe, barakalaringizni la’natlab bo‘ldim ham, chunki birontangiz ogohimga e’tibor bermadingiz. 3 Men farzandlaringizni jazolayman. Qurbonliklaringizning ichaklaridan chiqqan axlatni betlaringizga sochaman, o‘sha axlatga qo‘shib, o‘zlaringizni ham axlat uyumiga tashlab yuboraman.

4 Shunda bu amrni sizlarga Men berganimni bilib olasizlar. Men bu amr orqali ota–bobongiz Levi va uning nasllari bilan tuzgan ahdimni* mustahkam qilmoqchi edim, — deydi Sarvari Olam. 5 — Levi qabilasi bilan qilgan o‘sha ahdim farovon hayot ahdi edi. Men levilarning qalbiga qo‘rquvni solib qo‘ydim, ular Mendan qo‘rqishardi, nomimni benihoya izzat etishardi. 6 Ular ko‘rsatmalarimni xalqqa buzmasdan yetkazishardi, adolatli hukm chiqarishardi. Sofdillik va to‘g‘rilik yo‘llarida Menga hamroh edilar, ko‘plarni gunohdan qaytardilar.

7 Ruhoniyning vazifasi odamlarga to‘g‘ri ta’lim berishdir. Odamlar uning oldiga maslahat so‘rab borishlari kerak, axir, Men Sarvari Olamman, u Mening elchimdir. 8 Ammo, ey ruhoniylar, sizlar yo‘limdan og‘dingizlar, o‘z ko‘rsatmalaringiz bilan

ko‘plarni yo‘ldan urdingizlar. Levi qavmi bilan tuzgan ahdimni barbod qildingizlar, — deydi Sarvari Olam. 9 — Men esa sizlarni xo‘rladim, barcha xalqlardan pastroq qildim. Sizlar Mening yo‘limdan yurmayapsiz, qonun masalasida tarafkashlik qilyapsiz.”

Yahudo xalqining Xudoga bo‘lgan sadoqatsizligi

10 Hammamizning Otamiz* bir emasmi?! Hammamizni bir Xudo yaratgan emasmi?! Nega endi biz bir–birimizga sadoqatsiz bo‘lishimiz kerak?! Nega Xudo ota–bobolarimiz bilan tuzgan ahdni bulg‘ashimiz kerak?! 11 Ey Yahudo xalqi*, sizlar sadoqatsizlik qildingiz. Quddusda hamda butun yurtda jirkanchli ishlarga qo‘l urdingiz. Ha, Egamiz yaxshi ko‘radigan Ma’badni bulg‘ab, begona xudolarga topinadigan qizlarga uylandingiz. 12 Egamiz bunday ishlarga qo‘l urgan har bir odamni xalqimiz* orasidan yo‘q qilsin. Unday odamlar Sarvari Olamga nazrlar keltirmasin.

13 Sizlar yana shunday qilyapsiz: Egamizning qurbongohini ko‘z yoshlar bilan yuvyapsiz, faryod qilib fig‘on chekyapsiz, chunki Xudo nazrlaringizni qabul qilmayapti, U bulardan mamnun emas. 14 “Nima uchun?” deb so‘raysiz. Chunki sizlar yoshlik chog‘ingizda uylangan xotiningizga bevafolik qildingiz. Axir, u sizning umr yo‘ldoshingiz, nikoh ahdingizdagi xotiningiz–ku! Egamizning O‘zi sizlarning orangizda guvohdir. 15 Ehtiyot bo‘ling, orangizda hech kim o‘z xotiniga xiyonat qilmasin. Xudo sizlarni bir tanu bir jon qilgan–ku!* Endi Xudo sizlardan nimani kutyapti? Haqiqiy xudojo‘y farzandlarni kutyapti*.

16 “Xotinidan nafratlanib, undan ajrashgan erkak* o‘z himoyasi ostida bo‘lgan xotiniga shafqatsizlik qilgan bo‘ladi*”, — deydi Isroil xalqining Xudosi — Egamiz. “Shu bois hushyor bo‘linglar, xiyonat qilmanglar”, — deydi Sarvari Olam.

Egamiz adolat o‘rnatadigan kun

17 Sizlar gaplaringiz bilan Egamizni charchatib yubordingizlar–ku, yana: “Qanday qilib Uni charchatibmiz?” deb so‘raysizlar. Sizlar: “Yomonlik qilgan hammani Egamiz yaxshi ko‘radi, ulardan mamnun bo‘ladi. Qani, adolat Xudosi bormi o‘zi?!” deb aytasizlar. Bu gaplaringiz bilan Egamizni charchatyapsizlar.

3–BOB

1 Sarvari Olam shunday deydi: “Mana, Men O‘z elchimni yuboryapman. U Men uchun yo‘lni hozirlaydi. Shunda sizlar izlayotgan Rabbiy to‘satdan O‘z Ma’badiga keladi. Ahd elchisi Uning O‘zidir. Sizlar Undan g‘oyat mamnun bo‘lasiz.”

2 Ammo U kelganda kim bardosh bera oladi?! Paydo bo‘lganda kimning joni saqlanib qoladi?! Ha, U o‘yadigan ishqor, tozalaydigan olov kabidir. 3 U o‘tirib, Levi avlodini* tozalaydi, kumush va oltinni olovda soflaganday ularni soflaydi. Shunda ular Egamizga manzur keladigan nazrlar taqdim qilishadi. 4 Keyin Yahudo xalqi va Quddus aholisi keltirgan nazrlar Egamizga oldingiday ma’qul bo‘ladi.

5 Sarvari Olam shunday deydi: “Shundagina Men hukm qilgani oldingizga boraman. Mendan qo‘rqmaydigan hammaga — sehrgar, zinokor, yolg‘on qasam ichganlar, mardikorlarning ish haqini ushlab qoladiganlar, yetim va bevalarni ezuvchilarga va musofirlarni turtkilaganlarga qarshi tezda guvohlik beraman.”

Tavbaga undov

6-7 Sarvari Olam shunday deydi:

— Ey Yoqub oʻgʻlonlari, Men Egangizman. Men hech qachon oʻzgarmayman! Shuning uchungina sizlar yoʻq boʻlib ketmadingizlar. Ota–bobolaringiz qonun–qoidalarimdan yuz oʻgirdilar. Sizlar ham ular singari qonunlarimga rioya qilmadingizlar. Endi tavba qilinglar. Ha, Mening oldimga qaytib kelinglar. Shunda Men ham oldingizga qaytib boraman. Ammo sizlar: “Nega tavba qilishimiz kerak?” deb soʻraysizlar. 8 Inson Xudodan narsa oʻgʻirlashga jur’at qiladimi?! Ammo sizlar Mening narsamni oʻgʻirlayapsizlar! Yana: “Nimangni oʻgʻirlabmiz?” deb soʻraysizlar. Ushr* va ehsonlarimni oʻgʻirladingiz! 9 E, la’nati boʻlib ketinglar! Mening narsamni oʻgʻirlabsiz–a! Sizlar, butun xalq, la’natisizlar! 10 Qani, omborxonaga ushrni bekami–koʻst qilib olib kelinglar. Xonadonimga ozuqa keltiringlar. Shu yoʻl bilan Meni sinab koʻringlar, — deydi Sarvari Olam. — Shunda koʻrasizlar, Men osmon qopqalarini ochaman. Sizlarga marhamatimni serob qilib yogʻdiraman. 11 Men ekinlaringizni har qanday zararkunanda va qurt–qumursqalardan asrayman. Uzumzorlaringizga ziyon yetmaydi, — deydi Sarvari Olam. 12 — Shunda barcha xalqlar sizlarni baxtli deb ataydi. Ha, yurtingiz orombaxsh bir joy boʻladi, — deydi Sarvari Olam.

13 Egamiz shunday dedi:

— Sizlar Men haqimda yomon gapirdingiz. Yana: “Qachon Sen haqingda yomon gapiribmiz?” deysizlar–a. 14 Sizlar aytasiz: “Xudoga xizmat qilish behuda. Sarvari Olamning talablarini ado etishdan hech foyda yoʻq. Uning huzurida azador kabi yurishning nima keragi bor?! 15 Takabburlar baxtli–ku. Yovuzlar ham gullab–yashnaydilar. Mana, qarang, ular Xudoni sinab turib jazodan ham qochib qutuldilar.”

16 Egamizdan qoʻrqqanlar shular haqida gaplashdilar. Egamiz esa ularning gaplariga e’tibor berib quloq soldi. Uning huzurida Egamizdan qoʻrqqan, Uning nomini e’zozlaganlar haqida Xotira kitobi yozildi. 17 Sarvari Olam shunday deydi: “Ular Meniki boʻladilar. Men belgilagan kunda xazinamning gavharlari boʻladilar. Mehribon ota–ona oʻz itoatkor bolasini xalos etganday, Men ham ularni xalos etaman. 18 Shunda, ey xalqim, sizlar solihu fosiqning farqini yana koʻrasiz. Ha, Menga xizmat qiladiganu Menga xizmat qilmaydiganning holini bilasiz.”

4–BOB

Egamizning kuni yaqinlashib qoldi

1 Sarvari Olam shunday deydi: “Ana, Egangizning kuni* yaqinlashib qoldi. Oʻsha kun lovullagan tandirday boʻladi. Takabburlar bilan yovuzlarning hammasi goʻyo xas–choʻpdir. Kelayotgan oʻsha kuni hammasi yondirib tashlanadi. Ulardan na shoxlar, na ildizlar qoladi.

2 Sizlar uchun esa, ey nomimni eshitib qoʻrqadiganlar, najot quyosh kabi koʻtariladi, sizlarga shifo nurlarini sochadi. Ha, sizlar shodlanasizlar. Ogʻilxonadan qoʻyib yuborilgan buzoqlarday sakraysizlar. 3 Yovuzlarni bosib ezasizlar. Ha, Men belgilagan oʻsha kunda ular oyogʻingiz ostidagi tuproqday boʻladi, — deydi Sarvari Olam. 4 — Qulim Musoning koʻrsatmalarini eslang. Unga Sinay togʻida* butun Isroil xalqi uchun bergan odil qonun–qoidalarimni esga oling. 5 Mana, Men, Egangizning ulugʻ va dahshatli kuni kelishidan oldin, oldingizga Ilyos paygʻambarni yuboryapman. 6 Ilyos otalarning yuraklarini farzandlariga, farzandlarning yuraklarini esa otalariga moyil qiladi. Toki Men yurtni la’natlab yoʻq qilmayin.”

IZOHLAR

…taxminan miloddan oldingi 430 yillar… — Naximiyo 13:6-31 ga qarang, bu oyatlarda o‘sha davrda Quddusdagi muammolar haqida bayon qilingan.

Ushr — har qanday daromadning o‘ndan bir qismi. Levilar 27:30-33, Qonunlar 14:22-29, 26:12-13 ga qarang.

1:4 *Edom xalqi* — Isroil xalqi Yoqubdan, Edom xalqi esa Yoqubning akasi Esovdan kelib chiqqan edi. Edom O‘lik dengizning janubida joylashgan yurt edi. Edom xalqi azaldan Isroil xalqining dushmani bo‘lib kelgan edi.

1:7 *Egamizning dasturxoni* — Ma’baddagi qurbongohga va Ma’badda Xudoga chin qalbdan sajda qilishga ishora.

1:12 *Mening dasturxonim* — shu bobning 7–oyati izohiga qarang.

2:4 *Levi va uning nasllari bilan tuzgan ahdim* — Xudo Levi qabilasidan bitta xonadonni, ya’ni Horunning avlodini Isroil xalqining ruhoniylari qilib tanladi (Chiqish 28:1, 29:1-9 ga qarang).

2:10 *Otamiz* — Xudo nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin (1:6 ga qarang). Ehtimol, Malaki xalqning bobokalonlari Ibrohimga yoki Yoqubga ishora qilgan.

2:11 *Yahudo xalqi* — Bobildagi surgundan qaytib kelgan odamlar. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi YAHUDO so‘ziga qarang.

2:12 *xalqimiz* — ibroniycha matnda *Yoqub chodirlari*. Bu ibora she’riy usulda qo‘llanilgan bo‘lib, Yahudo xalqiga ishora qiladi.

2:15 *Xudo sizlarni bir tanu bir jon qilgan–ku!* — Ibtido 2:24 ga qarang.

2:15 *Endi Xudo…kutyapti* — yoki *Axir xushxulq odam bunday qilmaydi. Aksincha, u Xudoga tegishli farzandlar o‘stirish niyatida to‘g‘ri yo‘lda yuradi*.

2:16 *Xotinidan nafratlanib, undan ajrashgan erkak…* — yoki *Men er–xotinning ajralishidan nafratlanaman, chunki xotinidan ajrashgan erkak…*.

2:16 *…o‘z himoyasi ostida bo‘lgan xotiniga shafqatsizlik qilgan bo‘ladi…* — ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *…o‘z kiyimini zo‘ravonlik bilan qoplaydi…*. Ba’zan ibroniy tilida kiyim so‘zi ramziy ma’noni ifodalab, ijobiy ma’noda qo‘llaniladi va er xotinini sevishiga, unga g‘amxo‘rlik qilish haqida bergan va’dasiga ishora qiladi (Hizqiyol 16:8 ga qarang, yana Rut 3:9 ga va o‘sha oyatning birinchi izohiga qarang).

3:3 *Levi avlodi* — 2:3-9 oyatlarga va 2:4 izohiga qarang.

3:8 *Ushr* — har qanday daromadning o‘ndan bir qismi. Levilar 27:30-33, Qonunlar 14:22-29, 26:12-13 ga qarang.

4:1 *Egangizning kuni* — Eski Ahddagi payg‘ambarlar bitiklarida bir necha marta uchraydigan ibora. Ko‘pincha bu ibora Xudo beradigan jazoga ishora qiladi. Bu ibora yana qiyomat kunidagi Xudoning hukmiga nisbatan ham ishlatiladi. O‘sha kuni Xudo O‘z dushmanlari ustidan g‘alaba qozonadi va ularni jazolaydi, O‘ziga sodiq qolganlarga esa orom bag‘ishlaydi, ularga tinchlik va qut–barakalar ato qiladi.

4:4 *Sinay tog‘i* — ibroniycha matnda *Xorev tog‘i*, Sinay tog‘ining yana bir nomi.

MATTO

BAYON ETGAN MUQADDAS XUSHXABAR

Kirish

Mazkur kitob Yangi Ahd tarkibidagi to‘rtta Xushxabarning birinchisidir. Bu kitob muallifi Isoning o‘n ikki shogirdidan biri bo‘lgan Mattodir. U o‘z Ustozining hayoti va faoliyatini batafsil bayon etadi.

Eski Ahd bitiklari Isroil xalqi uchun katta ahamiyatga egaligini bilgan muallif, payg‘ambarlarning bashoratlariga asoslangan holda, Isoning Xudo tomonidan yuborilgan Masih, ya’ni najot beruvchi tanlangan Shoh ekanini isbotlab beradi. Shuningdek, u Isoni buyuk Ustoz deb ta’riflaydi. Xudoning qonunlarini mukammal bilgan Iso Osmon Shohligi haqida xalqqa ko‘p ta’lim beradi.

Mattoning bu kitobni yozishdan maqsadi masihiylarning e’tiqodi Eski Ahd bitiklariga mustahkam asoslanganini ko‘rsatish edi. Shu orqali u masihiylarga imonda o‘sishlari uchun zamin yaratmoqchi bo‘ladi. Mazkur kitob Eski Ahdni Yangi Ahd bilan chambarchas bog‘lab turadi. Muallif Eski Ahddagi bashoratlarga ko‘p ahamiyat bergani sababli, bu kitob birinchi navbatda yahudiy kitobxonlari uchun yozilgan, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Kitobda yahudiy urf–odatlari sharhlanmagan, balki ko‘p ibroniycha terminlardan foydalanilgan. Kitob Iso Masihning nasabnomasi bilan boshlangan, nasabnomaga Ibrohimdan boshlab Isogacha bo‘lgan nasllar kiritilgan. Isoning “Dovud O‘g‘li” ekaniga katta e’tibor berilgan.

Kitobdagi “Haqiqiy baxtiyorlik” (5:1-12), “Bizning osmondagi Otamiz” ibodati (6:9-13) va “Oltin qoida” (7:12) kabi parchalar nihoyatda mashhur bo‘lib, odamlarga yod bo‘lib ketgan. Shular bilan bir qatorda, Isoning kitobga yakun yasagan quyidagi Buyuk topshirig‘i ham odamlar orasida keng tanilgan: “Yeru osmondagi butun hokimiyat Menga berilgan. Shuning uchun borib, barcha xalqlardan shogird orttiringlar. Ularni Ota, O‘g‘il va Muqaddas Ruh nomi bilan suvga cho‘mdiringlar. Men sizlarga buyurgan hamma narsaga amal qilishni ularga o‘rgatinglar. Zotan, Men har doim, dunyoning oxirigacha sizlar bilan birgaman.” (28:18-20)

1–BOB

Iso Masihning nasl–nasabi

1 Ibrohim va Dovud avlodidan bo‘lgan Iso Masihning nasabnomasi* quyidagicha:

Ibrohimdan Dovudgacha

2 Ibrohimdan Is’hoq tug‘ildi.
Is’hoqdan Yoqub tug‘ildi.
Yoqubdan Yahudo va uning aka–ukalari tug‘ildilar.
3 Yahudo va Tamaradan Paraz va Zerax tug‘ildilar.
Parazdan Xazron tug‘ildi.
Xazrondan Ram* tug‘ildi.
4 Ramdan Ominadav tug‘ildi.

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

Ominadavdan Naxshoʻn tugʻildi.
Naxshoʻndan Salmoʻn tugʻildi.
5 Salmoʻn va Rahobadan Boʻaz tugʻildi.
Boʻaz va Rutdan Obid tugʻildi.
Obiddan Essay tugʻildi.
6 Essaydan shoh Dovud tugʻildi.

Dovud davridan Isroil xalqi Bobilga surgun boʻlgan davrgacha

Dovuddan Sulaymon tugʻildi.
Sulaymonning onasi marhum Uriyoning xotini edi.
7 Sulaymondan Raxabom tugʻildi.
Raxabomdan Abiyo tugʻildi.
Abiyodan Oso tugʻildi.
8 Osodan Yohushafat tugʻildi.
Yohushafatdan Yohuram tugʻildi.
Yohuramdan* Uzziyo tugʻildi.
9 Uzziyodan Yoʻtom tugʻildi.
Yoʻtomdan Oxoz tugʻildi.
Oxozdan Hizqiyo tugʻildi.
10 Hizqiyodan Manashe tugʻildi.
Manashedan Omon tugʻildi.
Omondan Yoʻshiyo tugʻildi.
11 Isroil xalqi Bobilga surgun qilingan davrda*
Yoʻshiyo Yohayixinni* va boshqa oʻgʻil farzandlarni koʻrdi*.

Isroil xalqi Bobilga surgun boʻlgan davrdan Iso davrigacha

12 Isroil xalqi Bobilga surgun qilingandan keyin*
Yohayixindan Shaltiyol tugʻildi.
Shaltiyoldan Zarubabel* tugʻildi.
13 Zarubabeldan Abihud tugʻildi.
Abihuddan Eliyaqim tugʻildi.
Eliyaqimdan Azzur tugʻildi.
14 Azzurdan Zodoʻx tugʻildi.
Zodoʻxdan Oxiyom tugʻildi.
Oxiyomdan Elihud tugʻildi.
15 Elihuddan Elazar tugʻildi.
Elazardan Matton tugʻildi.
Mattondan Yoqub tugʻildi.
16 Yoqubdan Maryamning eri Yusuf tugʻildi.
Maryamdan esa Masih deb atalgan Iso tugʻildi.

17 Shunday qilib, Ibrohimdan Dovudgacha hammasi boʻlib oʻn toʻrt nasl, Dovuddan to xalq Bobilga surgun qilingungacha oʻn toʻrt nasl va surgunlik davridan to Masih tugʻilgungacha oʻn toʻrt nasldir*.

Iso Masihning tugʻilishi

18 Iso Masihning tugʻilishi shunday sodir boʻldi: Isoning onasi Maryam Yusufga

unashtirib qo‘yilgan edi. Ularning nikohidan oldin Maryam Muqaddas Ruhdan homilador ekanini bildi. 19 Maryamning bo‘lg‘usi eri Yusuf solih odam bo‘lib, Maryamni sharmanda qilishni istamay, birovga bildirmasdan fotihasini buzmoqchi bo‘ldi. 20 Yusuf bu haqda o‘ylab yurganda, Egamizning bir farishtasi unga tushida zohir bo‘lib dedi: “Ey Dovud o‘g‘li Yusuf! Maryamga uylanishdan qo‘rqma, chunki qornidagi Bola Muqaddas Ruhdan paydo bo‘lgan. 21 Maryam o‘g‘il tug‘adi, Uning ismini Iso* qo‘yasan, chunki U O‘z xalqini gunohlardan qutqaradi.”

22 Bu barcha voqealar Egamizning payg‘ambar orqali aytgan quyidagi so‘zlari bajo bo‘lishi uchun yuz bergan edi:

> 23 “Qiz homilador bo‘ladi, u o‘g‘il tug‘adi,
> Uning ismini Immanuil deb qo‘yishadi.”*

Immanuil “Xudo biz bilan” deganidir.

24 Yusuf uyg‘onib ketdi. Egamizning farishtasi buyurgandek, u Maryamga uylandi. 25 Ammo Maryam O‘g‘ilni* tug‘maguncha Yusuf Maryamga yaqinlashmadi. Bola tug‘ilganda esa Yusuf Unga Iso deb ism qo‘ydi.

2–BOB

Sharqdan kelgan munajjimlar

1 Iso shoh Hirodning hukmronligi davrida*, Yahudiyadagi Baytlahm shahrida tug‘ilgan edi. Oradan ko‘p o‘tmay sharqdan Quddusga munajjimlar kelishdi. 2 Ular:

— Yahudiylarning yangi tug‘ilgan shohi qayerda? — deb so‘radilar. — Biz Uning yulduzi chiqqanini ko‘rdik*. Unga ta’zim qilgani keldik.

3 Bu gapni eshitib shoh Hirod ham, butun Quddus aholisi ham bezovtalanib qoldi. 4 Hirod barcha bosh ruhoniylarni va Tavrot tafsirchilarini* to‘plab, ulardan:

— Masih* qayerda tug‘ilishi kerak? — deb so‘radi. 5 Ular shunday javob berdilar:

— Yahudiyadagi Baytlahm shahrida, chunki payg‘ambarning bitiklarida shunday yozilgan:

> 6 “Ey Yahudo yurtidagi Baytlahm!
> Sen Yahudoning buyuk shaharlaridan hech kam emassan.
> Zero, sendan bir Hukmdor chiqadi,
> U xalqim Isroilga cho‘ponlik qiladi.”*

7 Shundan keyin Hirod hech kimga bildirmay munajjimlarni chaqirib, ulardan yulduz paydo bo‘lgan aniq vaqtni bilib oldi. 8 So‘ng ularni Baytlahmga jo‘natayotib, dedi:

— Baytlahmga boringlar, Bola to‘g‘risida hamma narsani aniq bilib olinglar. Bolani topganlaringizdan keyin, menga xabar beringlar, toki men ham borib, Unga ta’zim qilayin.

9-10 Munajjimlar shohning so‘zlarini eshitib bo‘lib, yo‘lga tushdilar. Ularga oldin ko‘ringan yulduz* yana paydo bo‘ldi, munajjimlar rosa xursand bo‘ldilar. Yulduz ularga yo‘l ko‘rsatib bordi va nihoyat, Bola yotgan joy tepasiga kelib to‘xtadi. 11 Munajjimlar uyga kirib, Bolani va Uning onasi Maryamni ko‘rdilar. Tiz cho‘kib, Bolaga ta’zim qildilar. So‘ng xazinalar solingan qutichalarini ochib, Unga oltin, xushbo‘y tutatqilar va mirrani*

tortiq qildilar. 12 Hirodning oldiga qaytmasliklari to‘g‘risida ular tushlarida ogohlantirilgandan keyin, boshqa yo‘l bilan o‘z yurtiga qaytib ketdilar.

Yusuf Maryam va chaqaloqni Misrga olib qochadi

13 Munajjimlar ketganlaridan keyin, Egamizning bir farishtasi Yusufga tushida zohir bo‘lib dedi: “Tur! Bola bilan onasini olib, Misrga qoch. Chunki Hirod Bolani topib, o‘ldirmoqchi. Men senga aytmagunimcha, Misrda qol.” 14 Yusuf o‘rnidan turib, Bola bilan Maryamni oldi–yu, tunda Misrga jo‘nadi. 15 Hirodning ajali yetguncha, u yerda qoldi. Egamizning payg‘ambar orqali: “Men O‘g‘limni Misrdan chaqirib oldim”*, deb aytgan bashorati bajo bo‘lishi uchun bu voqea yuz bergandi.

Baytlahmda bolalar o‘ldiriladi

16 Hirod munajjimlarning aldab ketganini bilib, g‘azabga mindi. U Baytlahmdagi va uning atroflaridagi ikki yoshgacha bo‘lgan hamma o‘g‘il bolalarni qilichdan o‘tkazishni buyurdi. Chunki munajjimlarning aytgani bo‘yicha yulduz taxminan ikki yil oldin chiqqan edi. 17 Shunday qilib, Yeremiyo payg‘ambarning aytganlari bajo bo‘ldi:

18 “Rama shahridan* bir nido eshitilar,
Achchiq bir nolayu ohu fig‘on bu.
Bolalari uchun yig‘lar Rohila,
Ovunishni xohlamas, chunki ular endi yo‘q.”*

Yusuf oilasi bilan Misrdan qaytib keladi

19 Hirod vafot etgandan keyin Yusuf Misrda ekan, Egamizning bir farishtasi unga tushida zohir bo‘lib dedi: 20 “Tur, Bola bilan onasini olib, Isroil yurtiga qaytib bor. Bolaning joniga qasd qilganlar olamdan o‘tdi.”

21 Shunda Yusuf Bola bilan Maryamni olib, Isroil yurtiga yo‘l oldi. 22 Ammo Yahudiyada Hirod o‘rniga uning o‘g‘li Arxelayus* hukmronlik qilayotganini eshitib, u yerga borishga qo‘rqdi. So‘ng tushida ham Yahudiyaga bormaslik haqida ogohlantirilgandan keyin, Jalila hududiga yo‘l oldi. 23 U yerga borib, Nosira degan shaharga joylashdi. Shunday qilib, Egamiz payg‘ambarlar orqali: “Uni Nosiralik deb ataydilar”, deb aytgan bashorati* bajo bo‘ldi.

3–BOB

Yahyo cho‘mdiruvchining kelishi

1 O‘sha kunlarda* Yahyo cho‘mdiruvchi Yahudiya cho‘lida* va’z qila boshladi. 2 U odamlarga: “Tavba qilinglar, chunki Osmon Shohligi* yaqinlashdi!” deb aytardi. 3 Yahyo to‘g‘risida Ishayo payg‘ambar shunday degan edi:

“Cho‘lda bir ovoz yangramoqda:
«Egamizga yo‘l hozirlang,
Unga to‘g‘ri yo‘l oching!»”*

4 Yahyo tuya junidan to‘qilgan kiyim kiyib, charm kamar taqib yurardi*. Uning yeguligi chigirtka va yovvoyi asal edi. 5 Uning oldiga Quddus shahri va Yahudiya o‘lkasining qolgan hamma joylaridan hamda Iordan daryosi atroflaridan odamlar kelardi. 6 Ular gunohlarini e’tirof etishar, Yahyo esa ularni Iordan suviga cho‘mdirardi.

7 Farziy* va sadduqiy* mazhablaridan bo‘lgan ko‘p odamlar suvga cho‘mdirilish
uchun kelayotganlarini Yahyo ko‘rib, dedi: “Hoy, ilonlar zoti! Boshingizga kelayotgan
Xudo g‘azabidan qochib qutulasiz, deb sizlarga kim uqtirdi? 8 Tavbaga yarasha ish
tutinglar! 9 O‘zingizcha: «Biz Ibrohim naslidanmiz», deb aytishni xayolingizga ham
keltirmanglar! Sizlarga shuni aytay: Xudo mana bu toshlardan Ibrohimga avlod
tiklashga qodir. 10 Hozirdanoq daraxtlar ildizida bolta yotibdi. Yaxshi meva bermagan
har bir daraxt kesilib, olovga tashlanadi. 11 Tavba qilganingizni ko‘rsatish uchun men
sizlarni suvga cho‘mdiryapman. Lekin mendan ham qudratliroq bo‘lgan bir Zot
ortimdan kelmoqda. Men Uning choriqlarini ko‘tarib yurishga ham arzimayman. U
sizlarni Muqaddas Ruhga va olovga* cho‘mdiradi. 12 Uning panshaxasi qo‘lida tayyor
turibdi. U O‘z xirmonini shopiradi: bug‘doyini omborga to‘plab, somonni esa so‘nmas
o‘tda yondirib yuboradi.”

Iso suvga cho‘mdiriladi

13 Shu orada Iso Jalila hududidan Iordan daryosi bo‘yiga bordi. U Yahyo tomonidan
suvga cho‘mdirilmoqchi edi. 14 Lekin Yahyo Isoni to‘xtatmoqchi bo‘lib dedi:

— Aslida Siz meni suvga cho‘mdirishingiz kerak! Siz bo‘lsangiz mening oldimga
keldingiz!

15 Iso unga dedi:

— Keling, bu safar shunday bo‘la qolsin. Axir, biz Xudoning irodasini to‘la
bajarishimiz zarur.

Shundan keyin Yahyo rozi bo‘ldi. 16 Iso suvga cho‘mdirildi. U suvdan chiqqan zahoti,
osmon ochilib ketdi va Iso O‘z ustiga Xudoning Ruhi kaptar shaklida tushib qo‘nganini
ko‘rdi. 17 Shu payt osmondan: “Bu Mening sevikli O‘g‘limdir*, Undan nihoyatda
mamnunman*”, degan ovoz keldi.

4–BOB

Isoni iblis vasvasaga soladi

1 Iblisning sinovidan o‘tishi uchun Muqaddas Ruh Isoni sahroga boshlab ketdi. 2 Iso
qirq kun va qirq kecha ro‘za tutdi, oxiri och qoldi. 3 Shunda iblis* kelib, Isoni vasvasaga
solmoqchi bo‘lib dedi:

— Agar Sen Xudoning O‘g‘li* bo‘lsang, bu toshlarga buyur, nonga aylansin!

4 Iso unga javoban dedi:

— Yozilganki: “Inson faqat non bilan emas, balki Xudoning og‘zidan chiqqan har bir
so‘z bilan yashaydi.”*

5 Keyin iblis Isoni muqaddas shahar Quddusga olib bordi. Uni Ma’badning eng yuqori
joyiga chiqarib, 6 shunday dedi:

— Agar Sen Xudoning O‘g‘li bo‘lsang, O‘zingni pastga tashla. Axir, yozilgan–ku:

> “U Sen to‘g‘ringda farishtalariga amr beradi,
> Oyog‘ing toshga qoqilib ketmasin deya,
> Farishtalar qo‘llarida Seni ko‘tarib boradi.”*

7 Iblisga Iso dedi:

— “Egang Xudoni sinama”*, deb ham yozilgan.

8 So‘ng Isoni iblis baland bir toqqa olib chiqdi. Unga olamning barcha shohliklarini
hamda ularning hashamatini ko‘rsatib, 9 dedi:
— Agar tiz cho‘kib menga sajda qilsang, bularning hammasini Senga beraman.
10 Shunda Iso dedi:
— Yo‘qol ko‘zimdan, shayton! Axir: “Egang Xudoga sajda qil, faqat Unga xizmat qil”*,
deb yozilgan–ku!
11 Shundan keyin Isoni iblis tark etdi. Farishtalar kelib, Isoga xizmat qildilar.

Iso Jalilada xizmatini boshlaydi

12 Iso Yahyoning hibsga olinganini* eshitgach, Jalila hududiga qaytib bordi. 13 U
Nosira shahrida qolmay, Kafarnahumga borib o‘rnashdi. Kafarnahum shahri Zabulun va
Naftali hududidagi* Jalila ko‘li bo‘yida joylashgan edi. 14 Shunday qilib, Ishayo
payg‘ambarning aytgan quyidagi so‘zlari bajo bo‘ldi:

15 “Ey Zabulun va Naftali yurti!
Ey dengiz bo‘yidagi yerlar va Iordanning narigi tomonidagi o‘lka!
Ey g‘ayriyahudiylar Jalilasi!
16 Zulmatda yurgan xalq yorqin ziyoni ko‘rdi,
O‘lim soya solgan yurt aholisi ustiga nur sochildi.”*

17 Shu kundan boshlab Iso: “Tavba qilinglar, chunki Osmon Shohligi yaqinlashdi”,
deb va’z qiladigan bo‘ldi.

Isoning dastlabki shogirdlari

18 Iso Jalila ko‘li bo‘ylab ketayotgan edi, ikki aka–ukani ko‘rib qoldi. Birining ismi
Butrus deb ataluvchi Shimo‘n, ukasiniki Endrus edi. Ular baliqchi bo‘lib, ko‘lga to‘r
tashlayotgan edilar. 19 Iso ularga dedi: “Ortimdan yuringlar, Men sizlarga odamlarni
ovlashni o‘rgataman.” 20 Ular o‘sha zahotiyoq to‘rlarini tashlab, Isoga ergashdilar.
21 Iso bir oz yurgandan keyin, Yoqub va Yuhanno degan ikki aka–ukani ko‘rib qoldi.
Ular otasi Zabadiyo bilan birga qayiqda to‘r yamayotgan edilar. Iso ularni ham chaqirdi.
22 Ular ham darhol qayiqni va otasini qoldirib, Isoning orqasidan ergashdilar.

Iso xalqqa ta’lim beradi va xastalarni sog‘aytiradi

23 Iso butun Jalila hududini kezib yurardi. U sinagogalarda ta’lim berib, Osmon
Shohligi to‘g‘risidagi Xushxabarni e’lon qilardi, odamlarning har xil xastaliklari va
dardlariga shifo berar edi. 24 Iso haqidagi xabar butun Suriyaga* yoyildi. Turli–tuman
dardu illatlardan qiynalib yurganlarni, jinga chalinganlarni, tutqanoq va shol kasaliga
yo‘liqqanlarning hammasini Isoning oldiga keltirishardi. Iso ularning hammasiga shifo
berardi. 25 Jaliladan, Dekapolis hududidan*, Quddusdan, Yahudiyadan va Iordanning
narigi tomonidagi yerlardan ko‘plab odamlar Isoga ergashib kelardi.

5–BOB

Haqiqiy baxtiyorlik

1 Iso katta bir olomonni ko‘rib, toqqa chiqib o‘tirdi. Shogirdlari Uning oldiga kelishdi.
2 Iso shogirdlariga ta’lim berib, gap boshladi:

3 “Ruhan kambag‘al bo‘lganlar baxtlidir,

Chunki Osmon Shohligi ularnikidir.
4 Yig‘layotganlar baxtlidir,
Chunki ular tasalli topadilar.
5 Kamtarin bo‘lganlar baxtlidir,
Chunki ular yer yuziga ega bo‘ladilar.
6 Adolatga tashna bo‘lganlar baxtlidir,
Chunki Xudo ularni qondiradi.
7 Rahmdil bo‘lganlar baxtlidir,
Chunki ular rahm–shafqat topadilar.
8 Pokdil bo‘lganlar baxtlidir,
Chunki ular Xudoni ko‘radilar.
9 Tinchlik o‘rnatuvchilar baxtlidir,
Chunki ular Xudoning farzandlari deb ataladilar.
10 Xudoning yo‘lidan yurgani uchun
Quvg‘in bo‘lganlar baxtlidir,
Chunki Osmon Shohligi ularnikidir.

11 Odamlar Men tufayli sizlarni haqoratlab quvg‘in qilganlarida, sizlar haqingizda yolg‘on gapirib tuhmat qilganlarida, baxtlisizlar! 12 Sevininglar, xursand bo‘linglar. Sizlarni osmonda buyuk mukofot kutmoqda. Axir, sizdan avval o‘tgan payg‘ambarlar ham xuddi shunday quvg‘in bo‘lganlar.

Tuz va nur haqida

13 Sizlar yerning tuzisizlar. Lekin tuz o‘z ta’mini yo‘qotsa, uni yana qanday sho‘r qilib bo‘ladi?! Bunday tuz boshqa hech narsaga yaramaydi, uni oyoq ostiga tashlab yuborishadi.
14 Sizlar dunyoning nurisizlar. Tepalikka qurilgan shaharni ko‘zdan pinhon tutib bo‘lmaydi. 15 Hech kim chiroqni yoqib, ustini idish bilan yopib qo‘ymaydi. Aksincha, uni chiroqpoyaga qo‘yishadi, shunda chiroq uydagilarning hammasiga yorug‘lik beradi.
16 Sizning nuringiz ham insonlar oldida shunday porlasinki, ular yaxshi ishlaringizni ko‘rib, osmondagi Otangizni* ulug‘lasinlar.

Musoning qonuni haqida

17 Meni, Tavrot yoki payg‘ambarlarning bitiklarini* bekor qilgani kelgan, deb o‘ylamanglar. Men bekor qilgani emas, balki bajo keltirgani keldim. 18 Sizga chinini aytayin: yeru osmon yo‘q bo‘lib ketishi mumkin. Ammo Tavrotdagi na bir harf, na bir nuqta o‘chadi. Unda yozilgan hamma narsa amalga oshadi. 19 Shu bois kim bu amrlarning eng kichigiga ham rioya qilmay, uni boshqalarga buzib o‘rgatsa, Osmon Shohligida eng kichik bo‘ladi. Lekin kim bu amrlarni bajarib, boshqalarga o‘rgatsa, Osmon Shohligida buyuk bo‘ladi. 20 Sizlarga aytib qo‘yay: agar sizlarning solihligingiz Tavrot tafsirchilari va farziylarning solihligidan ustun kelmasa, sizlar hech qachon Osmon Shohligiga kirolmaysizlar.

G‘azab va jazo haqida

21 Ajdodlarimizga shunday aytilganini eshitgansizlar: «Qotillik qilma*. Qotillik qilgan odam hukm qilinadi.» 22 Lekin Men sizlarga aytaman: o‘z yaqinidan hatto g‘azablangan odam* ham hukm qilinadi. Yaqinini haqoratlagan odam oliy mahkamada javob beradi.

Yaqiniga: «Ahmoqsan» degan odam esa, do‘zax oloviga tashlanadi.
23 Shunday ekan, siz ehsoningizni qurbongohga olib kelganingizda, yaqiningiz
nimadandir sizdan xafa ekanligi yodingizga tushsa, 24 ehsoningizni qurbongoh oldida
qoldiring. Birinchi navbatda borib, yaqiningiz bilan yarashing, keyin kelib, ehsoningizni
nazr qiling.
25 Birov sizni ayblab qozixonaga olib borsa, vaqtni boy bermay, yo‘ldayoq
ayblovchingiz bilan kelishib oling. Aks holda, ayblovchingiz sizni qozi oldiga olib boradi,
qozi esa sizni mirshabga topshiradi. Sizni zindonga tashlashadi. 26 Sizlarga chinini aytay:
oxirgi tiyiningizni to‘lamaguningizcha, u yerdan chiqolmaysiz.

Zino va ajralish haqida

27 «Zino qilma»*, — deb aytilganini ham eshitgansizlar. 28 Lekin Men sizlarga
aytaman: agar siz ayolga shahvat bilan qarasangiz, xayolingizda u bilan zino qilgan
bo‘lasiz. 29 Bordi–yu, o‘ng ko‘zingiz gunoh qilishingizga sababchi bo‘lsa, uni o‘yib olib,
uloqtirib yuboring. Butun badaningiz do‘zaxga tashlangandan ko‘ra, a’zolaringizdan
bittasi yo‘q bo‘lgani siz uchun yaxshiroqdir. 30 Agar o‘ng qo‘lingiz gunoh qilishingizga
sababchi bo‘lsa, uni kesib tashlab, uloqtirib yuboring. Butun badaningiz do‘zaxga
yo‘liqqandan ko‘ra, a’zolaringizdan bittasi yo‘q bo‘lgani siz uchun yaxshiroqdir.
31 Yana deyilganki: «Kim xotini bilan ajrashmoqchi bo‘lsa, unga taloq xatini yozib
bersin.»* 32 Lekin Men sizlarga aytaman*: kim bevafolik aybidan boshqa sabab tufayli
o‘z xotini bilan ajrashsa, unga zino qilishga sabab topib beradi. Shuningdek, kim
ajrashgan xotinga uylansa, zino qilgan bo‘ladi.

Qasam haqida

33 Ajdodlarimizga: «Ichgan qasamingdan qaytma. Egamizga bergan va’dalaringni
bajargin»*, deb aytilganini ham eshitgansizlar. 34 Lekin Men sizlarga aytaman: umuman
qasam ichmanglar. «Osmon haqi», deya qasam ichmanglar, chunki osmon Xudoning
taxtidir. 35 «Yer haqi», deya qasam ichmanglar, chunki yer Xudoning poyandozidir.
«Quddus haqi», deya ham qasam ichmanglar, chunki Quddus buyuk Shohning*
shahridir. 36 Boshingiz haqi ham qasam ichmanglar, chunki o‘zlaringiz sochingizning bir
tolasini ham oq yoki qora qila olmaysiz. 37 Sizlarning so‘zingiz faqat «ha» yoki «yo‘q»
bo‘lsin. Bundan ortig‘i esa yovuz shaytondandir.

Yomonlikni yaxshilik bilan yengish haqida

38 Sizlar: «Ko‘z evaziga ko‘z, tish evaziga tish»*, — deb aytilganini ham eshitgansizlar.
39 Lekin Men sizlarga aytaman: sizga yomonlik qilgan odamga qarshilik ko‘rsatmang.
Agar kimdir o‘ng chakkangizga ursa, unga chapini ham tuting. 40 Kim siz bilan
da’volashib, ko‘ylagingizni olmoqchi bo‘lsa, unga to‘ningizni ham berib yuboring.
41 Birov* sizni bir chaqirim* yo‘l yurishga majbur qilsa, u bilan birga ikki chaqirim
yuring. 42 Sizdan so‘raganga bering, sizdan qarz olmoqchi bo‘lgandan yuz o‘girmang.

Dushmanlaringizni yaxshi ko‘ringlar

43 «Yaqiningni sevgin*, dushmaningdan nafratlan», deb aytilganini ham
eshitgansizlar. 44 Lekin Men sizlarga aytyapman: dushmanlaringizni yaxshi ko‘ringlar.
Sizlarni quvg‘in qilganlar uchun ibodat qilinglar*. 45 Shunda siz osmondagi Otangizning
farzandlari bo‘lasizlar. Chunki U O‘z quyoshini yovuzlar ustida ham, yaxshilar ustida
ham balqitadi, yomg‘irini solihlar ustiga ham, fosiqlar ustiga ham yog‘diradi. 46 Agar

sizni sevganlarnigina yaxshi koʻrsangiz, sizlarga qanday mukofot boʻladi? Axir, soliqchilar* ham shunday qilishmaydimi? 47 Agar siz faqat oʻz yaqinlaringiz bilan salomlashsangiz, boshqalardan nima farqingiz qoladi?! Axir, butparastlar ham xuddi shunday qilishmaydimi?! 48 Osmondagi Otangiz barkamol boʻlgani kabi, sizlar ham barkamol boʻlinglar.

6–BOB

Xayr–sadaqa haqida

1 Ehtiyot boʻlinglar, savob ishingizni odamlarga koʻz–koʻz qilmanglar. Aks holda, osmondagi Otangizdan mukofot ololmaysizlar. 2 Birovga xayr–sadaqa berganingiz haqida hammaga jar solib yurmanglar. Ikkiyuzlamachilargina odamlardan tahsin olish uchun sinagogalarda va koʻcha–koʻyda shunday qiladilar. Sizlarga chinini aytayin: ular oʻz mukofotini olib boʻlganlar. 3 Siz esa xayr–sadaqa berayotganingizda, oʻng qoʻlingiz nima qilayotganini chap qoʻlingiz bilmasin. 4 Xayr–sadaqangizni hech kimga bildirmay bering. Yashirincha qilgan bu ishingizni koʻrgan Otangiz sizni taqdirlaydi*.

Ibodat haqida

5 Ibodat qilganingizda, ikkiyuzlamachilarga oʻxshamanglar. Ular oʻzlarini hammaga koʻrsatish uchun sinagogalarda va koʻchalarning burchaklarida turib ibodat qilishni yaxshi koʻradilar. Sizlarga chinini aytay: ular oʻzlarining mukofotlarini olib boʻlganlar. 6 Siz esa ibodat qilayotganingizda ichkari xonaga kirib, eshikni berkitib oling va yashirin boʻlgan Otangizga ibodat qiling. Yashirin qilgan ishlaringizni koʻrgan Otangiz sizni taqdirlaydi. 7 Ibodat qilayotganingizda, butparastlar kabi, behuda soʻzlarni hadeb takrorlayvermang. Ular, koʻp soʻzlasam, ibodatim ijobat boʻladi, deb oʻylaydilar. 8 Ularga oʻxshamanglar, chunki osmondagi Otangiz soʻramasingizdan oldin nimaga muhtojligingizni biladi.

9 Sizlar esa shunday ibodat qilinglar:

«Bizning osmondagi Otamiz!
Sening muqaddas noming ulugʻlansin.
10 Sening Shohliging kelsin.
Osmonda boʻlgani kabi,
Yerda ham Sening irodang bajo boʻlsin.
11 Bugungi rizqimizni bergin.
12 Bizga qarshi gunoh qilganlarni biz kechirgandek,
Sen ham bizning gunohlarimizni kechirgin.
13 Bizni vasvasaga duchor qilmagin,
Yovuz shaytondan xalos qilgin*.»

14 Agar sizlarga yomonlik qilganlarni kechirsangizlar, osmondagi Otangiz ham sizni kechiradi. 15 Bordi–yu, sizlar boshqalarning gunohlarini kechirmasangizlar, Otangiz ham sizni kechirmaydi.

Roʻza haqida

16 Roʻza tutayotganingizda, ikkiyuzlamachilar kabi, qovoq solib yurmanglar. Ular roʻza tutayotganlarini boshqalarga koʻrsatish uchun yuvinib–taranmaydilar. Sizlarga

chinini aytayin: ular o‘z mukofotlarini olib bo‘lganlar. 17 Sizlar ro‘za tutganlaringizda
yuzlaringizni yuvib, sochlaringizni tarab yuring, 18 toki ro‘za tutganingizni yashirin
bo‘lgan Otangizdan boshqa hech kim bilmasin. Shunda yashirin qilgan ishingizni ko‘rgan
Otangiz sizni taqdirlaydi.

Samoviy xazina haqida

19 Bu dunyoda o‘zlaringiz uchun boylik g‘amlamanglar. Axir, bunday boylikni kuya
yeydi*, zang bosadi, o‘g‘ri tushib o‘g‘irlaydi. 20 Aksincha, o‘zlaringiz uchun samoda
xazina yig‘inglar. Bunday boylikni kuya yemaydi, zang bosmaydi, o‘g‘ri ham o‘g‘irlay
olmaydi. 21 Xazinangiz qayerda bo‘lsa, yuragingiz ham o‘sha yerda bo‘ladi.
22 Tananing chirog‘i — ko‘z. Agar ko‘zingiz yaxshi bo‘lsa, butun tanangiz yop–yorug‘
bo‘ladi. 23 Ammo ko‘zingiz yomon bo‘lsa, butun tanangiz zulmatga to‘ladi. Agarda
ichingizdagi nur zulmat bo‘lsa, zimziyo zulmatda qolgan ekansiz.
24 Hech kim ikki xo‘jayinga xizmat qilolmaydi. U yo birini yomon ko‘rib, boshqasini
yaxshi ko‘radi, yoki biriga bag‘ishlanib, boshqasini mensimaydi. Sizlar ham Xudoga, ham
boylikka birdek xizmat qila olmaysizlar.

Tirikchilik tashvishlari haqida

25 Shuning uchun sizlarga aytaman: tirikchiligingizdan xavotir olib, nima yeymiz,
nima ichamiz, ustimizga nima kiyamiz, demanglar. Axir, hayot ovqatdan, tana esa
kiyimdan muhimroq emasmi?! 26 Qushlarga qaranglar: ular na ekadi, na o‘radi, na
omborga don yig‘adi. Shunga qaramay, osmondagi Otangiz ularning rizqini beradi. Sizlar
esa ulardan ancha qadrlisizlar–ku! 27 Birontangiz tashvishlanib, umringizni bir lahzaga*
bo‘lsa ham uzaytira olarmidingiz?! 28 Nega kiyim uchun tashvishlanasizlar? Nilufar
gullarning qanday o‘sishiga e’tibor qiling: ular mehnat qilmaydi, ip yigirmaydi. 29 Ammo
sizlarga aytamanki, hatto shoh Sulaymon* o‘zining shuhrat cho‘qqisida ham o‘sha
gullarning birontasiday kiyinmagan. 30 Bugun bor, ertaga esa o‘choqqa tashlanadigan
dala o‘tini Xudo shunday bezagan bo‘lsa, nahotki sizlarni kiyintirmasa, ey imoni
sustlar?!
31 Shunday ekan, nima yeymiz, nima ichamiz, nima kiyamiz, deb tashvishlanib
yurmanglar. 32 Butparastlar hadeb bu narsalarning tashvishida yuradilar. Lekin
osmondagi Otangiz bularning hammasiga muhtoj ekaningizni biladi–ku! 33 Sizlar avvalo
Xudoning Shohligi* va Uning irodasini bajarish payida bo‘linglar*, shunda qolgan
hamma narsa sizga beriladi. 34 Xullas, ertangi kun uchun tashvish tortmanglar. Ertaning
tashvishi ertaning o‘ziga tegishlidir. Har bir kunning g‘am–tashvishi o‘ziga yetadi.

7–BOB

Boshqalarni hukm qilmanglar

1 Boshqalarni hukm qilishni bas qilinglar, shunda Xudo ham sizlarni hukm qilmaydi.
2 Sizlar boshqalarni qanday hukm qilsangizlar, Xudo ham sizlarni xuddi shunday hukm
qiladi. Sizlar boshqalarni hukm qilganda qanday o‘lchovdan foydalansangizlar, Xudo
ham sizni hukm qilganda xuddi o‘shanday o‘lchovdan foydalanadi. 3 Nega sen
birodaringning ko‘zidagi zirapchani ko‘rasan–u, o‘z ko‘zingdagi xodani sezmaysan? 4 O‘z
ko‘zingda xoda bo‘la turib, qanday qilib birodaringga: «Kel, ko‘zingdagi zirapchani olib
tashlay», deb aytasan? 5 Hoy, ikkiyuzlamachi! Oldin ko‘zingdagi xodani chiqarib ol,

shunda ko‘zing tiniq ko‘radi va birodaringning ko‘zidan zirapchani chiqara olasan.
6 Muqaddas bo‘lgan narsani ko‘ppaklarga bermang, marvaridlaringizni cho‘chqalar
oldiga tashlamang. Aks holda, ular muqaddas narsalaringizni oyoq osti qilib, o‘zingizni
ham tilka–pora qiladilar!

Xudodan so‘ranglar

7 So‘rang, sizga beriladi. Izlang, topasizlar. Taqillating, eshik ochiladi. 8 Chunki
so‘ragan har bir odam oladi, izlagan topadi, taqillatganga eshik ochiladi. 9 Orangizdan
qaysi bir ota o‘g‘li non so‘raganda, unga non o‘rniga tosh beradi? 10 Yoki baliq
so‘raganda, unga baliq o‘rniga ilon beradi? 11 Sizlar gunohkor bo‘la turib bolalaringizga
yaxshi hadyalar bera olar ekansiz, osmondagi Otangiz ham Undan so‘raganlarga a’lo
ne’matlar berishga qanchalar tayyor!
12 Odamlar sizlarga nima qilishlarini istasangiz, sizlar ham ularga o‘shani qilinglar.
Tavrot va payg‘ambarlar ta’limotining* mag‘zi shundadir.

Najot eshigi tordir

13 Tor eshikdan kiringlar! Chunki halokatga olib boradigan darvoza enli, yo‘li ham
kengdir. Bu yo‘ldan yurayotganlar ko‘p. 14 Hayotga olib boradigan eshik esa juda tor,
yo‘li ensizdir. Bu yo‘lni topadiganlar oz.

Daraxt va uning mevasi

15 Soxta payg‘ambarlardan ehtiyot bo‘linglar! Ular sizning oldingizga qo‘y po‘stinida
keladilar, lekin ichlaridan yirtqich bo‘rilardir. 16 Ularning kimligini qilgan ishlaridan
bilib olasiz. Axir, tikanzordan uzumni, yantoqdan anjirni terib bo‘lmaydi–ku! 17 Har bir
yaxshi daraxt yaxshi meva beradi, yomon daraxt esa yomon meva beradi. 18 Yaxshi
daraxt yomon meva berolmaydi, yomon daraxt ham yaxshi meva berolmaydi. 19 Yaxshi
meva bermaydigan har bir daraxt esa kesilib, olovga tashlanadi. 20 Shunday qilib, soxta
payg‘ambarlarni mevalaridan bilib olasiz.
21 Meni «Yo Rabbiy, yo Rabbiy!» deb chaqirgan har kim Osmon Shohligiga
kiravermaydi. U yerga faqat osmondagi Otamning irodasini bajargan odamlargina
kiradi. 22 Qiyomat kunida ko‘plar Menga shunday deydilar: «Yo Rabbiy, yo Rabbiy, biz
Sening noming bilan va’z qilgan edik! Sening noming bilan jinlarni quvib chiqargandik!
Sening noming bilan ko‘p mo‘jizalar qilgan edik–ku!» 23 Men esa ularga deyman: «Men
sizlarni aslo tanimayman! Yo‘qolinglar, ey badkirdorlar!»

Dono va ahmoq binokor

24 Kim Mening bu so‘zlarimni eshitib, ularga amal qilsa, uyini tosh ustiga qurgan
dono odamga o‘xshaydi. 25 Yomg‘ir yog‘ib, sellar toshib, shamollar esib, o‘sha uyni bosib
qolibdi. Lekin tosh ustiga o‘rnatilgani uchun uy qulamabdi. 26 Biroq kim Mening bu
so‘zlarimni eshitib, ularga amal qilmasa, o‘z uyini qum ustiga qurgan ahmoq odamga
o‘xshaydi. 27 Yomg‘ir yog‘ib, sellar toshib, shamollar esib, o‘sha uyni bosib qolibdi. Uy
qulab, butunlay vayron bo‘libdi!”

28 Iso bu gaplarini aytib bo‘lgandan keyin, olomon Uning ta’limotidan hayratga
tushdi. 29 Chunki Iso Tavrot tafsirchilariday* emas*, balki hokimiyat egasi kabi ta’lim
berar edi.

8–BOB

Teri kasalligiga chalingan odamni Iso sog‘aytiradi

1 Iso tog‘dan tushganda katta bir olomon Uning orqasidan ergashdi. 2 Shu orada teri
kasalligiga* chalingan bir odam Isoning oldiga keldi. U tiz cho‘kib, dedi:
— Hazrat*, bilaman, istasangiz, meni bu kasallikdan Siz poklay olasiz.
3 Iso qo‘lini uzatib, unga tekkizdi–da:
— Istayman, pok bo‘l! — dedi. Teri kasalligiga chalingan odam shu zahoti dardidan
forig‘ bo‘ldi. 4 Iso unga dedi:
— Menga qara! Bu to‘g‘rida birovga og‘iz ocha ko‘rma. Borib, o‘zingni ruhoniyga*
ko‘rsat. Poklanganingni hammaga isbot qilish uchun* Muso amr qilgan qurbonliklarni
keltir*.

Rim yuzboshisining imoni

5 Iso Kafarnahum shahriga kirib kelganda, bir Rim* yuzboshisi Uning oldiga kelib,
yolvordi:
6 — Hazrat, xizmatkorim uyda to‘shakka mixlanib yotibdi. U qattiq azob chekyapti.
7 — Mayli, Men borib, xizmatkoringizni sog‘aytiraman, — dedi Iso. 8 Yuzboshi
shunday dedi:
— Hazrat! Kulbamga oyoq bosishingiz uchun nomunosibman. Siz buyursangiz, bas,
xizmatkorim sog‘ayib ketadi. 9 Men o‘zim buyruqqa tobe odamman, ammo mening ham
qo‘lim ostida askarlarim bor. Biriga “ket” desam, ketadi, boshqasiga “kel” desam, keladi.
Biron xizmatkorimga “shuni qil” desam, qiladi.
10 Iso yuzboshining bu gapini eshitib, hayratlandi. U orqasidan ergashib
kelayotganlarga dedi:
— Sizlarga chinini aytayin: Men Isroil xalqi orasida bunday kuchli imonga ega
bo‘lgan bironta odamni uchratmadim. 11 Sizlarga shuni aytaman: ko‘p odamlar sharqu
g‘arbdan kelib, Ibrohim, Is’hoq va Yoqub bilan birga Osmon Shohligida ziyofatga
o‘tiradilar. 12 Osmon Shohligining merosxo‘rlari* esa tashqaridagi zulmatga quvib
chiqariladi. Ular u yerda qattiq pushaymon bo‘lib, fig‘on chekadilar.
13 Keyin Iso yuzboshiga dedi:
— Boring, siz ishonganingizday bo‘lsin.
Yuzboshining xizmatkori o‘sha zahoti sog‘ayib ketdi.

Iso ko‘p odamlarga shifo beradi

14 Iso Butrusning uyiga kelganda, uning qaynanasi isitmalab, to‘shakda yotganini
ko‘rdi. 15 Iso uning qo‘liga tegishi bilan isitmasi tushdi. Ayol turib, Unga xizmat qildi.
16 Kech kirganda* Isoning oldiga jin chalgan ko‘plab odamlarni olib kelishdi. U so‘z
bilan jinlarni quvib chiqardi, xasta odamlarning hammasiga shifo berdi. 17 Shu tariqa
Ishayo payg‘ambarning quyidagi aytgan so‘zi bajo bo‘ldi:

> “Dardlarimizni U O‘ziga oldi,
> Og‘riqlarimizdan bizni forig‘ qildi.”*

Isoga ergashish shartlari

18 Iso atrofida bir talay olomonni ko‘rib, shogirdlariga ko‘lning narigi tomoniga*
o‘tishni buyurdi. 19 Shu payt Isoning oldiga Tavrot tafsirchisi kelib dedi:

— Ustoz, qayerga borsangiz ham, men ortingizdan boraman.
20 Iso unga shunday dedi:
— Tulkilarning uyalari bor, qushlarning inlari bor. Inson O‘g‘lining* esa bosh qo‘yadigan joyi yo‘q.
21 Shogird bo‘lgan boshqa bir odam esa Isoga:
— Hazrat, ijozat bering, avval borib otamni dafn qilib kelay, — dedi. 22 Iso esa Unga dedi:
— Sen ortimdan yur. Marhumlarni ruhan o‘lik bo‘lganlar* dafn qilsinlar.

Iso bo‘ronni tinchitadi

23 Iso qayiqqa tushdi, shogirdlari ham Unga ergashib, qayiqqa tushdilar. 24 Shu orada ko‘lda bo‘ron ko‘tarildi, to‘lqinlar qayiqni suvga to‘ldira boshladi. Iso esa uxlayotgan edi. 25 Shunda shogirdlari Isoning oldiga borib:
— Hazrat, bizni qutqaring! Halok bo‘lyapmiz! — deb Isoni uyg‘otdilar. 26 Iso ularga dedi:
— Nega qo‘rqyapsizlar, ey imoni sustlar?
So‘ng turib, shamolga va to‘lqinlarga do‘q urdi. Shu ondayoq chuqur sukunat cho‘kdi. 27 Qayiqdagilar hayratlanib, bir–biriga:
— Bu kim bo‘ldi ekan–a? Hatto shamol va to‘lqinlar Unga bo‘ysunadi–ya! — deyishdi.

Jinga chalingan ikki odamga Iso shifo beradi

28 Iso ko‘lning narigi qirg‘og‘iga, Gadara* shahrining yaqiniga yetib bordi. Shunda jinga chalingan ikki odam qabrlar orasidan yugurib kelib, Isoning qarshisidan chiqishdi. Ular shunchalik vahshiy edilarki, bironta odam u yerdan o‘ta olmasdi. 29 Ular shunday deb baqirishdi:
— Ey Xudoning O‘g‘li!* Bizni tinch qo‘y! Sen bizga vaqtidan oldin azob bergani bu yerga keldingmi?
30 Ulardan nariroqda katta bir cho‘chqa podasi o‘tlab yurgan edi. 31 Jinlar Isoga yolvorib:
— Agar bizlarni quvib chiqaradigan bo‘lsang, unda cho‘chqa podasiga yuborgin, — deyishdi. 32 Iso ularga:
— Boringlar! — deyishi bilanoq, jinlar odamlar ichidan chiqib, cho‘chqalarga kirib olishdi. Shu onda butun cho‘chqa podasi tik qiyalikdan ko‘lga yopirilib, suvda nobud bo‘ldi. 33 Cho‘chqa boquvchilar esa qochib shaharga bordilar. Jinga chalinganlar bilan bo‘lib o‘tgan hodisani hammaga gapirib berdilar. 34 Shunda butun shahar aholisi Isoning oldiga bordi. Uni ko‘rgach, hududimizdan chiqib keting, deb o‘tinib so‘radilar.

9–BOB

Iso sholni sog‘aytiradi

1 Iso qayiqqa tushib, ko‘lning narigi tomonidagi Kafarnahum shahriga suzib bordi. U o‘sha paytda Kafarnahumda yashardi. 2 Iso shaharga kirishi bilanoq bir necha kishi Uning oldiga to‘shakda yotgan bir shol odamni ko‘tarib keldilar. Iso ularning ishonchini ko‘rib, sholga:
— Dadil bo‘l, o‘g‘lim, gunohlaring kechirildi, — dedi. 3 Shunda Tavrot tafsirchilaridan

ba’zilari o‘zlaricha: “Bu Odam kufrlik qilyapti–ku!” deyishdi. 4 Ularning bu o‘y–fikrlarini bilgan Iso dedi:

— Nega sizlar bunday yomon narsalarni o‘ylaysizlar? 5 Qaysi biri osonroq? “Gunohlaring kechirildi!” deb aytishmi, yoki: “O‘rningdan turib yur!” deb aytishmi? 6 Inson O‘g‘liga yer yuzida gunohlarni kechirish hokimiyati berilgan. Hozir shuni bilib olasizlar.

Iso shunday dedi–yu, sholga:

— O‘rningdan tur! To‘shagingni olib, uyingga bor! — deb buyurdi. 7 Shol o‘rnidan turib, uyiga ketdi. 8 Olomon bu voqeani ko‘rib, qo‘rqib ketdi*. Ular inson zotiga bunday hokimiyat bergan Xudoni ulug‘ladilar.

Iso Mattoni chaqiradi

9 Iso yo‘lda davom etarkan, soliq yig‘adigan joyda o‘tirgan Mattoni ko‘rib qoldi. Iso unga:

— Ortimdan yur! — dedi. Matto o‘rnidan turib, Isoga ergashdi.

10 Bir ozdan keyin Iso Mattoning uyida mehmon bo‘ldi. Ko‘p soliqchilar* va gunohkorlar kelib, Iso va Uning shogirdlari bilan birga dasturxon atrofiga o‘tirdilar. 11 Farziylar buni ko‘rib, Isoning shogirdlaridan:

— Nega Ustozingiz soliqchilaru gunohkorlar bilan birga yeb–ichib o‘tiribdi? — deb so‘radilar. 12 Iso bu gapni eshitib, ularga shunday javob berdi:

— Sog‘lar emas, xastalar tabibga muhtojdir. 13 Boringlar–da, Tavrotdagi: “Men qurbonlikni emas, rahm–shafqatni istayman”* degan so‘zlarning ma’nosini o‘rganib kelinglar. Axir, Men solihlarni emas, gunohkorlarni tavbaga chaqirgani kelganman.

Ro‘za tutish haqida savol

14 Bir kuni Yahyoning shogirdlari Isoning oldiga kelib, shunday savol berdilar:

— Bizlar va farziylar ko‘p ro‘za tutamiz, nega Sizning shogirdlaringiz ro‘za tutmaydilar?

15 Iso ularga dedi:

— Kuyov davrada bo‘lganda to‘ydagi mehmonlar qayg‘uradimi? Biroq ular kuyovdan judo bo‘ladigan kunlar keladi, ana o‘shanda ro‘za tutadilar. 16 Hech kim eski kiyimga yangi matodan yamoq solmaydi. Chunki yangi yamoq eski kiyimni battar yirtib yuboradi. 17 Shuningdek, yangi sharobni ham eski meshga quymaydilar. Chunki mesh yorilib ketadi*, sharob ham to‘kiladi, mesh ham nobud bo‘ladi. Aksincha, yangi sharobni yangi meshga quyadilar, shunda unisi ham, bunisi ham saqlanib qoladi.

Tirilgan qiz, sog‘aygan ayol

18 Iso ularga bu so‘zlarni aytib turganda, bir sinagoga boshlig‘i kelib qoldi. U Isoning oldida tiz cho‘kib, shunday deb yolvordi:

— Qizim hozirgina vafot etdi. Yuring, qizimga qo‘lingizni tekkizing, u tirilib ketadi.

19 Iso o‘rnidan turib, shogirdlari bilan o‘sha odamning orqasidan bordi. 20 Shu payt o‘n ikki yildan beri qon ketishidan azob chekayotgan bir ayol Isoning orqasidan kelib, Uning kiyimi etagiga qo‘l tekkizdi. 21 U o‘zicha: “Agar kiyimiga bir tegib olsam, sog‘ayib ketaman”, deb o‘ylagan edi.

22 Iso orqasiga o‘girildi. Ayolni ko‘rib, dedi:

— Dadil bo‘l, qizim, ishonching seni sog‘aytirdi.

Ayol shu zahoti dardidan xalos bo‘ldi.

23 Iso sinagoga boshlig‘ining uyiga yetib borganda, nay chaluvchilarni va dod–faryod
qilayotgan olomonni* ko‘rdi. 24 Iso:
— Hammalaringiz chiqinglar! — deb buyurdi. — Qizcha o‘lmagan, u uxlab yotibdi.
Odamlar Isoning ustidan kulishdi. 25 Olomon tashqariga chiqarilgandan so‘ng Iso
ichkariga kirib, qizchaning qo‘lidan ushladi. Qizcha o‘rnidan turib ketdi. 26 Bu xabar
butun atrofga yoyildi.

Iso ikkita ko‘r odamga shifo beradi

27 Iso u yerdan jo‘nab ketayotganda, ikki ko‘r Uning orqasidan ergashgancha dod
solib:
— Ey Dovud O‘g‘li* Iso, bizlarga rahm qiling! — deb faryod qilishardi. 28 Iso uyga
kirganda, ko‘rlar Uning yoniga kelishdi. Iso ulardan so‘radi:
— Sizlarga shifo bera olishimga ishonasizlarmi?
— Ha, Hazrat! — deb javob berishdi ular. 29 Shunda Iso ularning ko‘zlariga qo‘lini
tekkizib:
— Sizlarning ishonchingizga yarasha bo‘lsin, — dedi. 30 Ularning ko‘zlari ochilib
ketdi. Iso ularga:
— Buni hech kim bilmasin! — deb qat’iy ogohlantirdi. 31 Ammo ular o‘sha yerdan
chiqiboq, butun atrofga Iso haqida ovoza qildilar.

Iso soqov odamga shifo beradi

32 Ular ketgandan keyin, Isoning oldiga jin chalgan bir soqovni olib kelishdi. 33 Iso
jinni quvib chiqargandan keyin, soqov tilga kirdi, xalq esa hayratda qolib:
— Isroil xalqi orasida bunday hodisa hech qachon bo‘lmagan, — dedi. 34 Ammo
farziylar shunday derdilar:
— U ins–jinslar hukmdorining* kuchi bilan jinlarni quvib chiqaryapti.

Hosil mo‘l, ishchilar oz

35 Iso hamma shaharu qishloqlarga borib, sinagogalarda ta’lim berardi, Xudoning
Shohligi to‘g‘risidagi Xushxabarni e’lon qilib, odamlarning turli xastaligu dardlariga
shifo berardi. 36 Iso olomonni ko‘rib, ularga achinib ketdi, chunki ular cho‘ponsiz
qo‘ylarday dovdiragan va holdan toygan edilar.
37 Shunda Iso shogirdlariga dedi:
— Hosil mo‘l, ammo ishchilar oz. 38 Shuning uchun hosil Egasidan: “Hosilingni yig‘ib
olishga yana ishchilar yubor”, deb so‘ranglar.

10–BOB

Iso o‘n ikki havoriyni xizmatga yuboradi

1 Iso O‘zining o‘n ikki havoriysini yoniga chaqirib, ularga yovuz ruhlarni quvib
chiqarish va har qanday dardu xastaliklarni sog‘aytirish qudratini berdi. 2 Bu o‘n ikki
havoriyning ismlari quyidagichadir: birinchisi Butrus deb atalgan Shimo‘n, uning ukasi
Endrus, Zabadiyoning o‘g‘illari Yoqub va Yuhanno, 3 Filip, Bartolomey, To‘ma, soliqchi*
Matto, Xalfey o‘g‘li Yoqub, Taddeyus*, 4 vatanparvar* Shimo‘n va Isoga xoinlik qilgan
Yahudo Ishqariyot.
5 Iso o‘n ikki havoriyni jo‘natayotib, ularga quyidagicha ko‘rsatmalar berdi:
“G‘ayriyahudiylar yashaydigan joylarga oyoq bosmanglar, Samariyaliklarning*

shaharlariga kirmanglar. 6 Aksincha, adashgan qo‘ylarga o‘xshagan Isroil xalqi oldiga
boringlar. 7 Borganlaringizda: «Osmon Shohligi yaqinlashdi», deb e’lon qilinglar.
8 Xastalarni sog‘aytiringlar, o‘liklarni tiriltiringlar, teri kasalligiga* chalinganlarni
poklanglar, jinlarni quvib chiqaringlar. Tekin oldingizlar, tekin beringlar.
9 Belbog‘laringizga oltin, kumush, hatto mis chaqa ham qistirib olmanglar. 10 Yo‘lga
to‘rva ham, qo‘shimcha kiyim ham, choriq ham, hassa ham olmanglar. Chunki
mehnatkash o‘zining non–nasibasiga munosibdir.

11 Qaysi shahar yoki qishloqqa kirsangiz, u yerda o‘zingizga munosib odamni topib,
ketguningizcha o‘sha odamning uyida turinglar. 12 Uyga kirganingizda: «Xonadoningizda
tinchlik–omonlik bo‘lsin», deb aytinglar. 13 Agar u munosib xonadon bo‘lsa, siz tilagan
tinchlik o‘sha xonadonda qoladi. Agarda nomunosib bo‘lsa, tilagan tinchligingiz
o‘zingizga qaytib keladi. 14 Agar kim sizni qabul qilmasa va so‘zlaringizga quloq solmasa,
o‘sha uydan yoki shahardan chiqib ketayotganingizda oyoqlaringizdagi changni qoqib
ketinglar*. 15 Sizga chinini aytaman: qiyomat kunida o‘sha shaharning holi Sado‘m va
G‘amo‘ra shaharlarining* holidan ham battar bo‘ladi.

Kelajakdagi mashaqqatlar

16 Men sizlarni bo‘rilar orasiga qo‘ylarday yuboryapman. Sizlar ilonday ziyrak,
kaptarday oq ko‘ngil bo‘linglar. 17 Insonlardan ehtiyot bo‘linglar. Chunki ular sizlarni
mahkamalarga topshirib, sinagogalarda kaltaklaydilar. 18 Men tufayli sizlarni hokimlar
va shohlar huzuriga olib boradilar, sizlar esa ularga va g‘ayriyahudiylarga Men
haqimdagi Xushxabarni aytasizlar. 19 Sizlarni mahkamaga olib borishganda: «Qanday
gapiramiz, nima aytamiz», deb xavotir olmanglar. Nima aytishingiz o‘sha vaqtda sizlarga
bildiriladi. 20 O‘shanda sizlar emas, balki Otangiz Xudoning Ruhi sizlar orqali gapiradi.

21 Aka ukasini, ota bolasini o‘limga topshiradi. Bolalar o‘z ota–onalariga qarshi
chiqib, ularni o‘ldirtiradilar. 22 Mening nomim tufayli hamma sizlardan nafratlanadi.
Lekin oxirigacha bardosh bergan najot topadi. 23 Agar sizlarni bir shaharda quvg‘in
qilsalar, boshqasiga qochib boringlar. Sizlarga chinini aytayin: sizlar Isroilning
shaharlarini aylanib chiqishga ulgurmasingizdan, Inson O‘g‘li keladi.

24 Shogird ustozidan ustun emas, qul ham o‘zining xo‘jayinidan ustun emas.
25 Shogird ustoziday, qul xo‘jayiniday bo‘lsa kifoya. Agar uy egasini Baalzabul, ya’ni ins–
jinslar hukmdori* deb atagan bo‘lishsa, uy ahlini undan battar nom bilan atashadi!

Qo‘rqish va qo‘rqmaslik haqida

26 Shunday bo‘lsa–da, odamlardan qo‘rqmanglar! Axir, har qanday yashirin narsa
ma’lum bo‘ladi, har qanday sir ochiladi. 27 Sizga qorong‘ida gapirayotganlarimni
yorug‘da aytinglar. Qulog‘ingizga shivirlab aytganlarimni uylarning tomi ustidan
baqirib, e’lon qilinglar. 28 Tanani o‘ldirib, jonni o‘ldira olmaydiganlardan qo‘rqmanglar.
Xudodan qo‘rqinglar! Chunki U jonni ham, tanani ham do‘zaxda halok etishga qodir.
29 Ikkita chumchuq bir tangaga* sotiladi, shunday emasmi? Biroq bularning birontasi
ham osmondagi Otangizning xohishisiz yerga tushmaydi. 30 Sizlarning esa hatto
boshingizdagi har bir tola sochingiz sanalgan. 31 Shuning uchun qo‘rqmanglar, sizlar
ko‘plab chumchuqlardan qadrliroqsizlar.

Isoga loyiq bo‘lish haqida

32 Kim Meni insonlar oldida tan olsa, Men ham osmondagi Otamning oldida uni tan
olaman. 33 Ammo kim insonlar oldida Meni rad etsa, Men ham osmondagi Otamning

oldida uni rad etaman.

34 Meni yer yuziga tinchlik olib kelgan, deb o‘ylamanglar. Men tinchlik emas, qilich
olib kelganman. 35 O‘g‘ilni otasidan, qizni onasidan, kelinni qaynanasidan ajratish uchun
kelganman. 36 Insonning dushmanlari o‘z uyidagilari bo‘ladi*. 37 Kimki otasini yoki
onasini Mendan ortiq sevsa, Menga loyiq emas. Kimki o‘g‘lini yoki qizini Mendan ortiq
sevsa, Menga loyiq emas. 38 Kimki o‘z xochini olib*, ortimdan yurmasa, Menga loyiq
emas. 39 O‘z jonini ayamoqchi bo‘lgan uni yo‘qotadi. Men uchun jonini bergan esa, uni
asrab qoladi.

40 Sizni qabul qilgan odam Meni qabul qilgan bo‘ladi. Meni qabul qilgan esa Meni
Yuborganni qabul qilgan bo‘ladi. 41 Kimki payg‘ambarni payg‘ambar bo‘lgani uchun
qabul qilsa, payg‘ambarga munosib mukofotni oladi. Kimki solih odamni solih bo‘lgani
uchun qabul qilsa, solihga munosib mukofotni oladi. 42 Agar siz shogirdlarimning eng
kichigiga u Mening shogirdim bo‘lgani uchun bir piyola sovuq suv bersangiz, albatta
mukofotingizni olasiz, deb sizga chinini aytaman.”

11–BOB

Iso Masih va Yahyo cho‘mdiruvchi

1 Iso o‘n ikki shogirdiga ko‘rsatmalarni berib bo‘lgandan keyin, yaqin atrofdagi
shaharlarda ta’lim berish va va’z aytish uchun ketdi. 2 Yahyo bu paytda zindonda edi*, u
Isoning qilayotgan ishlarini eshitib, shogirdlarini* Isoning oldiga 3 shunday savol bilan
yubordi: “Keladigan Zot Sizmisiz, yoki biz boshqasini kutaylikmi?”

4 Iso Yahyoning shogirdlariga shunday javob berdi:

— Boringlar, ko‘rib eshitayotganlaringizni Yahyoga aytinglar: 5 ko‘rlar ko‘rmoqda,
cho‘loqlar yurmoqda, teri kasalligiga* chalinganlar tuzalmoqda, karlar eshitmoqda,
o‘liklar tirilmoqda, yo‘qsillar Xushxabarni eshitmoqda. 6 Mendan yuz o‘girmaganlar
naqadar baxtlidir!

7 Yahyoning shogirdlari ketayotganlarida, Iso olomonga Yahyo haqida gapira
boshladi: “Sahroga nimani ko‘rgani bordingizlar? Shamolda hilpirab turgan
qamishnimi? 8 Xo‘sh, nimani ko‘rgani bordingizlar? Bashang kiyingan odamnimi?
Bashang kiyinganlar shoh saroyida bo‘ladi–ku! 9 Unday bo‘lsa, nimani ko‘rgani
bordingizlar? Payg‘ambarnimi? Ha, sizlarga shuni aytay: sizlar payg‘ambardan ham
ulug‘ini ko‘rdingizlar! 10 U haqda shunday yozilgan:

> «Mana, Sendan oldin Men O‘z elchimni yuboryapman,
> U Sen uchun yo‘lni hozirlaydi.»*

11 Sizlarga chinini aytay: butun inson zoti orasida Yahyo cho‘mdiruvchidan ulug‘i
yo‘q. Ammo Osmon Shohligida eng kichik hisoblangan odam ham undan ulug‘roqdir.
12 Yahyo cho‘mdiruvchi davridan shu kungacha odamlar Osmon Shohligiga shafqatsiz
hujum qilmoqdalar. Zo‘ravonlar Osmon Shohligini qo‘lga kiritishga harakat qilmoqdalar.
13 Yahyo cho‘mdiruvchidan oldin o‘tgan hamma payg‘ambarlarning bitiklarida va Tavrot
kitobida* Osmon Shohligi haqida bashorat qilingan. 14 Agar bu bashoratlarga ishonishni
istasangizlar, Yahyo — kelishi bashorat qilingan Ilyosdir*. 15 Kimning eshitar qulog‘i
bo‘lsa, eshitsin!

16 Bu naslni kimga qiyoslasam bo‘ladi? Ular bolalarga o‘xshaydilar, maydonda o‘tirib

olib, shunday deya bir–birlariga baqiradilar:

17 «Sizlar uchun nay chaldik, ammo raqsga tushmadingiz,
Biz oh–voh qildik, ammo sizlar qayg‘urmadingiz.»

18 Yahyo kelganda, u na yedi, na ichdi, shuning uchun hamma: «Uni jin uribdi», deydilar.
19 Inson O‘g‘li kelganda esa ham yedi, ham ichdi. Ammo Uni: «Yebto‘ymas, sharobxo‘r, soliqchilar* va gunohkorlarning do‘sti», deydilar. Lekin bilib qo‘yinglar: donolik to‘g‘ri ekanligi o‘z natijasidan ayon*.”

Gunohkor shaharlarning holiga voy

20 Iso ba’zi shaharlarda ko‘p mo‘jizalar ko‘rsatgandi, ammo xalq o‘z gunohlari uchun tavba qilmadi. Iso o‘sha shaharlar aholisiga ta’na qildi: 21 “Sening holingga voy, ey Xorazin! Sening holingga voy, ey Baytsayda! Agar sizlarda qilingan mo‘jizalar Tir bilan Sidon shaharlarida* qilinganda edi, ular allaqachon qanorga o‘ranib, boshlariga kul sochib*, tavba qilgan bo‘lardilar. 22 Biroq sizlarga aytayin: qiyomat kunida sizning holingiz Tir va Sidonning holidan battar bo‘ladi. 23 Ey Kafarnahum! Xudo seni ko‘klarga ko‘taradi deb o‘ylaysanmi?! Yo‘q, U seni tubsiz chuqurlikka uloqtiradi! Agar senda yuz bergan mo‘jizalar Sado‘mda* bo‘lganda edi, u shahar shu kungacha saqlanib qolgan bo‘lar edi. 24 Biroq senga aytayin: qiyomat kunida sening holing Sado‘m shahrining holidan battar bo‘ladi.”

Holdan toyganlarga orom va’dasi

25 O‘sha vaqtda Iso yana shunday dedi: “Ey Ota, yeru osmonning Egasi! Sen bu ishlarni donolaru idroklilardan yashirib, go‘daklarga ma’lum etganing uchun Senga shukurlar aytaman. 26 Ha, Ota, bu Sening ezgu xohishing edi.

27 Otam hamma narsani Mening ixtiyorimga topshirgan. O‘g‘ilni Otadan boshqa hech kim bilmaydi. Otani ham O‘g‘ildan boshqa va O‘g‘il ayon qilishni istagan odamdan boshqa hech kim bilmaydi.

28 Ey holdan toyganlar, og‘ir yuk ostida qolganlar, hammalaringiz Mening oldimga kelinglar! Men sizlarga orom beraman. 29 Mening bo‘yinturug‘imni* taqib olinglar, Mendan o‘rganinglar. Chunki Men yumshoq ko‘ngil va kamtarinman. Shunda sizlarning jonlaringiz orom topadi. 30 Axir, Mening bo‘yinturug‘im qulay, yukim yengildir.”

12–BOB

Shabbat kuniga rioya qilish haqida

1 Oradan ko‘p o‘tmay Iso Shabbat kuni bug‘doyzordan o‘tib borayotgan edi. Och qolgan shogirdlari boshoqlardan uzib, donlarini yeyardilar*. 2 Farziylar buni ko‘rib, Isoga:

— Qara, shogirdlaring Shabbat kuni qonunga xilof ish* qilyaptilar! — deyishdi.

3 Iso ularga dedi:

— Dovud hamrohlari bilan och qolganda nimalar qilganini* nahotki sizlar hech o‘qimagan bo‘lsangizlar?! 4 U Xudoning uyiga kirib, muqaddas nonlarni* yegan. Qonunga muvofiq esa bunday nonlarni faqat ruhoniylar yeyishga haqli edilar. Dovudga va uning hamrohlariga bunday nonlarni yeyish taqiqlangan edi! 5 Yoki Shabbat kunida Ma’baddagi ruhoniylar Shabbat qonunini buzsalar ham, aybdor bo‘lmasliklarini

Tavrotda o‘qimaganmisizlar?* 6 Sizlarga shuni aytay: bu yerda Ma’baddan ham ulug‘ bir
Zot turibdi. 7 Agar sizlar: “Men qurbonlikni emas, rahm–shafqatni istayman”* degan
so‘zlarning ma’nosini tushunganingizda edi, aybsiz odamlarni hukm qilmagan bo‘lar
edingizlar. 8 Zotan, Inson O‘g‘li Shabbat kunining ham Hokimidir.
9 Iso u yerdan ketib, sinagogaga bordi. 10 U yerda qo‘li shol bir odam bor edi. Isoni
ayblamoqchi bo‘lgan ba’zi odamlar Unga shunday savol berdilar:
— Qonunga ko‘ra, Shabbat kuni xastalarga shifo berish mumkinmi?
11 Iso ularga shunday javob berdi:
— Agar bir dona qo‘yingiz bo‘lsa–yu, o‘sha qo‘yingiz Shabbat kuni chuqurga tushib
ketsa, uni chiqarib olmasmidingiz?! 12 Odam esa qo‘ydan ancha qadrliroq–ku! Shunga
ko‘ra, Shabbat kuni yaxshilik qilish qonunga muvofiqdir.
13 Qo‘li shol odamga Iso:
— Qo‘lingni uzat! — dedi. U qo‘lini uzatishi bilanoq, qo‘li narigi qo‘liday soppa–sog‘
bo‘lib qoldi. 14 Farziylar esa tashqariga chiqib, Isoni halok qilish uchun til biriktirishdi.

Iso — Egamiz tanlagan Qul

Iso farziylarning bu niyatini bilib, u yerdan ketdi. 15 Bir talay olomon Isoga ergashdi.
U xastalarning hammasiga shifo berib, 16 “Mening kimligimni aytmanglar!” deb ularga
buyurardi. 17 Shu tariqa Ishayo payg‘ambarning aytgan quyidagi so‘zlari bajo bo‘ldi:

18 “Mana Mening Qulim,
O‘zim Uni tanlab olganman.
U ko‘nglimni mamnun etgan Suyukligimdir.
Men Unga O‘z Ruhimni beraman,
U adolatni elatlarga e’lon qiladi.
19 Janjallashmaydi, baqirmaydi,
Ko‘chalarda hech kim Uning ovozini eshitmaydi.
20 U ezilgan qamishni sindirmaydi,
Tutayotgan pilikni o‘chirmaydi,
Qat’iyat bilan adolat o‘rnatadi.
21 Elatlar Uning ismiga umid bog‘laydi.”*

Iso va shayton

22 Shundan keyin Isoning oldiga jin chalgan bir odamni olib kelishdi. U ham ko‘r, ham
soqov edi. Iso unga shifo bergach, u gapiradigan va ko‘radigan bo‘ldi. 23 Butun xalq
hayratda qolib: “Bu Dovudning O‘g‘li* emasmikan?!” derdi. 24 Bu voqeani eshitgan
farziylar esa shunday dedilar: “U ins–jinslar hukmdori Baalzabulning* kuchi bilan
jinlarni quvib chiqaryapti.”
25 Iso ularning nima haqida o‘ylayotganini bilib turardi. U shunday dedi: “Nizo tufayli
o‘z ichidan bo‘linib ketgan har bir shohlik xarob bo‘ladi, nizo tufayli bo‘lingan shahar
ham, xonadon ham barbod bo‘ladi. 26 Agar shayton shaytonni quvib chiqarsa, uning
shohligi o‘zaro bo‘lingan bo‘ladi. Bunday shohlik qanday tura oladi?! 27 Agar Men jinlarni
Baalzabulning kuchi bilan quvib chiqarayotgan bo‘lsam, u holda o‘z sheriklaringiz
kimning kuchi bilan jinlarni quvib chiqarishyapti? Shu sababdan ham ular sizlarni hukm
qiladi. 28 Agar Men jinlarni Xudoning Ruhi bilan quvayotgan bo‘lsam, demak, Uning
Shohligi sizlarga ham kelgan.

29 Kim kuchli odamning uyiga bostirib kirib, uning mol–mulkini talon–taroj qila
oladi? Avval u uyning egasini bog‘lab qo‘yishi kerak, keyingina uyini talon–taroj qila
oladi. 30 Kim Men tomonda bo‘lmasa, Menga qarshidir. Kim Men bilan birga yig‘masa,
sochadi.
31 Shuning uchun sizlarga aytaman: insonlarning har qanday gunohi va kufrligi
kechiriladi. Lekin Muqaddas Ruhga kufrlik qilganlar* kechirilmaydi. 32 Kim Inson
O‘g‘liga qarshi so‘z aytsa, kechiriladi. Lekin kim Muqaddas Ruhga qarshi so‘z aytsa, ikki
dunyoda ham kechirilmaydi.
33 Yaxshi daraxt yaxshi meva beradi, yomon daraxt esa yomon meva beradi. Har bir
daraxtning qandayligini mevasidan bilsa bo‘ladi. 34 Voy ilonlar zoti! Sizlar yovuz bo‘la
turib, yaxshi narsa gapira olarmidingiz?! Axir, odamning dili nimaga to‘lib–toshsa, o‘sha
tiliga chiqadi! 35 Yaxshi odam yuragining ezgulik xazinasidan yaxshilik chiqaradi, yomon
odam yuragining yomonlik xazinasidan yomonlik chiqaradi. 36 Yana shuni aytib qo‘yay:
sizlar aytadigan har bir bema’ni so‘zingiz uchun qiyomat kunida hisob berasizlar.
37 Sizlar o‘z so‘zlaringiz asosida yo oqlanasizlar, yoki ayblanasizlar.”

Yunus payg‘ambarning alomati

38 Shunda Tavrot tafsirchilari va farziylardan ba’zilari Isoga: “Ustoz, bizga bir alomat
ko‘rsatishingizni xohlar edik”, dedilar.
39 Iso ularga javoban dedi: “Bu qabih va bevafo nasl alomat so‘rayapti, ammo ularga
Yunus payg‘ambarning alomatidan* boshqa alomat berilmaydi. 40 Yunus uch kechayu
kunduz nahang baliqning qornida bo‘lganiday, Inson O‘g‘li ham uch kechayu kunduz yer
bag‘rida bo‘ladi. 41 Naynavo* aholisi qiyomat kunida o‘rnidan turib, bu naslni mahkum
etadi. Chunki Naynavoliklar Yunusning va’zidan keyin tavba qilganlar. Bu yerda esa
Yunusdan ham buyukroq bir Zot turibdi! 42 Janub malikasi* qiyomat kunida o‘rnidan
turib, bu naslning odamlarini mahkum etadi. Chunki Sulaymonning dono ta’limotini
tinglagani malika dunyoning u chetidan kelgan edi. Bu yerda esa Sulaymondan ham
buyukroq bir Zot turibdi!
43 Yovuz ruh insondan chiqqandan keyin, huzur–halovat izlab, suvsiz yerlarni kezadi,
lekin topmaydi. 44 So‘ng: «Chiqqan uyimga qaytib boraman», deydi. Uyiga kelganda, uyni
kimsasiz, supurilgan va yig‘ishtirilgan holda ko‘radi. 45 Shunda borib, o‘zidan ham
yovuzroq boshqa yetti ruhni ergashtirib keladi va ular bilan uyga kirib, joylashib oladi.
Oxir–oqibat o‘sha odamning ahvoli oldingidan ham battar bo‘ladi. Bu yovuz nasl ham
xuddi o‘sha ko‘yga tushadi.”

Isoning onasi va ukalari

46 Iso olomonga gapirayotganda, onasi bilan ukalari Uni tashqarida kutib turgan
edilar. Ular Iso bilan gaplashmoqchi edilar. 47 Kimdir Isoga dedi:
— Onangiz bilan ukalaringiz tashqarida turishibdi, ular Siz bilan gaplashmoqchi.
48 Iso esa bu gaplarni aytgan odamga shunday javob berdi:
— Mening onam kim? Ukalarim kim?
49 So‘ng qo‘li bilan shogirdlarini ko‘rsatib, dedi:
— Mana, Mening onam va ukalarim! 50 Osmondagi Otamning irodasini bajo
keltirganlar Mening ukam, singlim va onam bo‘ladi.

13–BOB

Urug‘ sepuvchi haqida masal

1 O‘sha kuni Iso uydan chiqib, ko‘l bo‘yiga borib o‘tirdi. 2 Uning atrofida shu qadar
ko‘p olomon to‘plandiki, U qayiqqa tushib, o‘tirishga majbur bo‘ldi. Olomon esa ko‘l
qirg‘og‘ida turardi. 3 Iso masal orqali xalqqa ko‘p narsalarni o‘rgatdi: “Quloq solinglar!
Bir dehqon urug‘ sepgani chiqibdi. 4 U urug‘ sepayotganda ba’zi urug‘lar so‘qmoq yo‘l
ustiga tushibdi. Qushlar uchib kelib, urug‘larni cho‘qib ketibdi. 5 Ba’zi urug‘lar tuprog‘i
kam toshloqqa tushibdi. Tuproq kam bo‘lgani uchun urug‘lar tez ko‘karib chiqibdi.
6 Biroq quyosh chiqqach, qovjirab, ildizi bo‘lmagani uchun so‘lib qolibdi. 7 Boshqa
urug‘lar tikanlar orasiga tushibdi. Tikanlar o‘sib, urug‘larni bo‘g‘ib qo‘yibdi. 8 Yana
boshqa urug‘lar esa yaxshi tuproqqa tushibdi. Ba’zilari yuz, ba’zilari oltmish, ba’zilari
esa o‘ttiz barobar ko‘p hosil beribdi. 9 Kimning eshitar qulog‘i bo‘lsa, eshitsin!”

Masallarning maqsadi

10 Shundan keyin shogirdlar kelib, Isodan so‘radilar:
— Nega odamlarga masallar bilan gapiryapsiz?
11 U shunday javob berdi: “Osmon Shohligining sirlarini bilish ularga emas, sizlarga
berilgan. 12 Zero, kimda bor bo‘lsa, unga yana beriladi va unda mo‘l–ko‘lchilik bo‘ladi.
Ammo kimda yo‘q bo‘lsa, bori ham tortib olinadi. 13 Odamlarga masallar bilan
gapirayotganimning sababi shuki, ular qarab turib ko‘rmaydilar, quloq solib turib,
eshitmaydilar va anglamaydilar. 14 Ishayoning bashorati ularda bajo bo‘lgan:

> «Sizlar tinglab turasiz–u, lekin hech tushunmaysiz,
> Qarab turasiz–u, ammo hech anglab yetmaysiz.
> 15 Zero, bu xalqning aqli o‘tmas bo‘lib qoldi,
> Quloqlari garang bo‘ldi,
> Ko‘zlarini yumib olishdi.
> Aks holda, ko‘zlari ko‘rgan bo‘lardi,
> Aks holda, quloqlari eshitgan bo‘lardi,
> Aqllari anglagan bo‘lardi,
> Yana Menga qaytgan bo‘lishardi,
> Men ularga shifo bergan bo‘lardim.»*

16 Sizlar esa nihoyatda baxtlisizlar! Axir, sizlarning ko‘zlaringiz ko‘radi, quloqlaringiz
eshitadi. 17 Sizlarga chinini aytay: qanchadan–qancha payg‘ambarlar, qanchadan–
qancha solih odamlar siz ko‘rganlarni ko‘rishni istaganlar, ammo ko‘rmaganlar. Sizlar
eshitganlaringizni eshitishni ular istaganlar, ammo eshitmaganlar.

Urug‘ sepuvchi haqidagi masalning ma’nosi

18 Urug‘ sepuvchi haqidagi masalning ma’nosini anglab olinglar. 19 Osmon Shohligi
to‘g‘risidagi kalomni eshitgan, ammo tushunib olmagan odamga yovuz shayton kelib,
uning yuragiga ekilgan kalomni o‘g‘irlab ketadi. So‘qmoq yo‘l ustiga tushgan urug‘lar
ana shularga ishoradir. 20 Toshloq yerga sepilgan urug‘lar esa shunday odamlarni
bildiradi: ular kalomni eshitganda, uni darrov sevinch bilan qabul qiladilar. 21 Lekin
ularning ildizi bo‘lmagani uchun uzoq vaqtga chidamaydilar. Kalom tufayli qiyinchilik
yoki quvg‘inga duchor bo‘lishsa, darrov chekinadilar. 22 Tikanlar orasiga sepilgan

urug‘lar shunday odamlarni bildiradiki, ular Xudoning kalomini eshitadilar, lekin dunyoning tashvishlari va boylikka o‘chlik kalomni bo‘g‘ib qo‘yadi, kalom esa samarasiz qoladi. 23 Yaxshi tuproqqa sepilgan urug‘lar esa shunday odamlarni bildiradi: ular kalomni eshitib, uning ma’nosini tushunib oladilar. Ularning ba’zilari yuz barobar, ba’zilari oltmish barobar va ba’zilari o‘ttiz barobar mo‘l hosil beradilar.”

Begona o‘t haqida masal

24 Iso ularga boshqa bir masal aytib berdi: “Osmon Shohligini o‘z dalasiga yaxshi urug‘ sepgan bir odamning vaziyatiga o‘xshatsa bo‘ladi. 25 Hamma uxlab yotganda, dushman kelib, bug‘doyzorga begona o‘t urug‘ini sepib ketibdi. 26 Bug‘doy o‘sib, boshoqlay boshlaganda, begona o‘tlar ham o‘sib chiqibdi. 27 Xizmatkorlar kelib, xo‘jayiniga aytibdilar:

— Xo‘jayin, dalangizga yaxshi urug‘ ekkan edingiz–ku! Manavi begona o‘tlar qayoqdan paydo bo‘ldi ekan?

28 — Bu dushmanning ishi, — deb javob beribdi xo‘jayin. Xizmatkorlar xo‘jayinga:

— Istasangiz, biz borib o‘sha o‘tlarni yulib tashlaymiz.

29 — Yo‘q, — debdi u, — sizlar begona o‘tlarni yulayotganlaringizda, bug‘doyni ham qo‘shib yulib olishingiz mumkin. 30 Mayli, o‘rim–yig‘im paytigacha bug‘doy bilan birga begona o‘tlar ham o‘saversin. Payti kelganda o‘roqchilarga: “Avval begona o‘tlarni yig‘ishtirib, bog‘langlar–da, yoqib yuboringlar, keyin bug‘doyni yig‘ishtirib, omborxonamga joylanglar”, deyman.”

Xantal urug‘i haqida masal

31 Iso ularga yana boshqa bir masalni aytib berdi: “Osmon Shohligi bir odam o‘z bog‘iga sepgan xantal urug‘iga* o‘xshaydi. 32 Xantal urug‘larning eng maydasi bo‘lsa–da, o‘sib chiqqanda, hamma ko‘katlardan baland bo‘ladi. U shunday daraxt bo‘ladiki, qushlar uning shoxlariga uya quradi.”

Xamirturush haqida masal

33 Iso ularga boshqa bir masalni ham aytib berdi: “Osmon Shohligi xamirturushga o‘xshaydi. Ayol bir bo‘lak xamirturushni bir tog‘ora* unga qorsa ham, hamma xamir oshadi.”

34 Iso bularning hammasini olomonga masallar bilan gapirdi. Ularga hech narsa to‘g‘risida masalsiz gapirmasdi. 35 Shunday qilib, payg‘ambarning quyidagi so‘zlari bajo bo‘ldi:

> “Og‘zimni masalga ochaman,
> Dunyo yaratilgandan beri sir saqlanganlarni
> Sizga e’lon qilaman.”*

Begona o‘t haqidagi masalning ma’nosi

36 Shundan keyin Iso olomon oldidan ketib, uyga kirdi. Shogirdlari Isoning oldiga kelib:

— Begona o‘tlar haqidagi masalni bizga tushuntirib bering, — dedilar. 37 Iso shunday javob berdi: “Yaxshi urug‘ sepuvchi Inson O‘g‘lidir. 38 Dala olamdir, yaxshi urug‘lar — Osmon Shohligining odamlari, begona o‘tlar esa yovuz shaytonning odamlaridir. 39 Begona o‘tlarni sepgan dushman — iblis, o‘rim–yig‘im — oxirzamon, o‘roqchilar esa

farishtalardir. 40 Begona oʻtlarni yigʻishtirib, olovda yoqishganday, oxirzamonda ham
xuddi shunday voqea yuz beradi. 41 Inson Oʻgʻli Oʻz farishtalarini yuboradi. Farishtalar
Uning Shohligidan gunohga undagan hammani va barcha badkirdorlarni yigʻib oladilar.
42 Ularni lovullab turgan oʻchoqqa tashlaydilar. Badkirdorlar u yerda qattiq pushaymon
boʻlib, figʻon chekadilar. 43 Shunda solihlar oʻz Otalarining Shohligida quyosh kabi
porlaydilar. Kimning eshitar qulogʻi boʻlsa, eshitsin!

Yashirilgan xazina haqida masal

44 Osmon Shohligi dalada yashirilgan xazinaga oʻxshaydi. Bir odam uni topib olibdi.
Uni yana yashirib, xursand boʻlganidan bor–yoʻgʻini sotib, u dalani xarid qilibdi.

Qimmatbaho marvarid haqida masal

45 Osmon Shohligi nodir marvarid izlayotgan bir savdogarga oʻxshaydi. 46 Savdogar
qimmatbaho marvaridni topganda, bor–yoʻgʻini sotib, marvaridni xarid qilibdi.

Toʻr haqida masal

47 Osmon Shohligi baliqchilar dengizga tashlagan toʻrga oʻxshaydi. Toʻrga turli xil
baliqlar tutilibdi. 48 Toʻr toʻlgach, baliqchilar uni qirgʻoqqa tortib chiqarishibdi va oʻtirib,
yaxshi baliqlarni savatlarga solishibdi, yomonlarini esa tashlab yuborishibdi.
49 Oxirzamonda ham xuddi shunday boʻladi: farishtalar kelib, fosiqlarni solihlar orasidan
ajratib olib, 50 lovullagan oʻchoqqa tashlaydilar. Oʻchoqqa tushganlar qattiq pushaymon
boʻlib, figʻon chekadilar.”

51 Iso shogirdlaridan soʻradi:

— Bularning hammasini tushundingizlarmi?

— Tushundik, — deb javob berdi ular. 52 Iso ularga dedi:

— Shunday ekan, Osmon Shohligiga shogird tushgan har bir Tavrot tafsirchisi
omboridan ham yangi, ham eski narsalarni olib chiqayotgan uy egasiga oʻxshaydi.

Iso Oʻz yurtida rad etiladi

53 Iso bu masallarni aytib boʻlgach, u yerdan ketdi. 54 U ona shahriga* kelib,
sinagogada odamlarga ta’lim berdi. Odamlar esa hayratga tushib dedilar:

— Bu Odam shuncha donolikni va moʻjiza koʻrsatish qudratini qayerdan olgan ekan–
a? 55 Bu oʻsha duradgorning oʻgʻli emasmi?! Onasining ismi Maryam, ukalari Yoqub,
Yusuf, Shimoʻn va Yahudo–ku! 56 Uning singillari ham oramizda yashaydi! Bunday buyuk
ishlarni U qanday qilar ekan–a?

57 Odamlar Isodan qattiq xafa boʻldilar. Iso esa ularga dedi:

— Paygʻambar ona shahridan va oʻz uyidan boshqa hamma yerda izzatlanadi.

58 Odamlarning ishonchsizligi tufayli, Iso u yerda hech qanday moʻjiza koʻrsatmadi.

14–BOB

Yahyo choʻmdiruvchining oʻlimi

1 Shu orada viloyat hukmdori* Hirod* Iso toʻgʻrisidagi xabarlarni eshitib,
2 amaldorlariga dedi: “Bu Yahyo choʻmdiruvchi ekanligi aniq! U tirilib kelgan, shuning
uchun moʻjizalar koʻrsatish qudratiga ega.”

3 Uning bu gapni aytishiga sabab shu edi: bundan ancha vaqt oldin Hirod Yahyoni
hibsga olgandi. U oʻz ukasi Filipning xotini Hirodiya dastidan Yahyoni kishanlab,
zindonga tashlagan edi. 4 Chunki Yahyo unga: “Bu xotin bilan yashashingiz qonunga zid”,

deb aytar edi. 5 Hirod Yahyoni o‘ldirishni xohlagan bo‘lsa–da, xalqdan qo‘rqqan edi. Chunki odamlar Yahyoni payg‘ambar deb bilishardi.

6 Hirodning tug‘ilgan kuni bo‘lganda, Hirodiyaning qizi o‘rtaga chiqib raqsga tushdi. Qizning raqsi Hirodga shunchalik yoqdiki, 7 Hirod unga:

— Ont ichaman, so‘ragan narsangni muhayyo qilaman, — deb va’da berdi. 8 Qiz esa onasining gapiga kirib:

— Menga Yahyo cho‘mdiruvchining boshini laganda keltirib bering! — dedi.

9 Shoh aytgan gapidan afsus chekdi, ammo mehmonlari oldida qasam ichgani uchun qizning iltimosini bajarishni buyurdi. 10 U zindonga odam yuborib, Yahyoning boshini oldirdi. 11 Uning boshini laganda keltirib qizga berdilar, qiz esa onasiga olib borib berdi. 12 Yahyoning shogirdlari kelib, ustozning jasadini oldilar, uni dafn etdilar. So‘ng borib, Isoga xabar berdilar.

Iso 5000 kishini to‘ydiradi

13 Yahyo haqidagi xabarni eshitgandan keyin, Iso qayiqqa tushib*, yolg‘iz O‘zi kimsasiz joyga suzib ketdi. Olomon esa bu haqda eshitib, shaharlardan piyoda Uning orqasidan ergashdi. 14 Iso qayiqdan chiqqanda, katta bir olomonni ko‘rdi. Ularga achinib ketib, xastalariga shifo berdi.

15 Kech kirganda, shogirdlar Isoning oldiga kelib dedilar:

— Bu joy kimsasiz ekan, buning ustiga, juda kech bo‘lib qoldi. Xalqni jo‘natib yuboring, toki ular atrofdagi qishloqlarga borib, o‘zlariga yegulik sotib olishsin.

16 Iso ularga dedi:

— Ketishlariga hojat yo‘q, sizlar ularga ovqat beringlar.

17 — Bizda bor–yo‘g‘i beshta non va ikkita baliq bor, — deb javob berdi shogirdlar.

18 — O‘sha narsalarni Menga olib kelinglar, — dedi Iso. 19 U odamlarga maysalar ustiga o‘tirishni buyurdi. So‘ng beshta non bilan ikkita baliqni oldi–da, osmonga qarab shukrona duosini o‘qidi. U nonlarni sindirib, shogirdlariga berdi, shogirdlar nonlarni odamlarga tarqatishdi. 20 Hamma yeb to‘ydi. Ortib qolgan non burdalarini yig‘ib olishganda, to‘la o‘n ikki savat chiqdi. 21 Ayollar va bolalarni hisobga olmaganda, taxminan besh mingga yaqin odam non yegan edi.

Iso suv ustida yuradi

22 Iso vaqt o‘tkazmay, shogirdlarini qayiqqa tushirib, ko‘lning narigi tomoniga* ketishga majbur qildi. Olomonni esa uylariga qaytarib jo‘natib yubordi. 23 U odamlarni ketkizib yuborgandan keyin, ibodat qilish uchun bir O‘zi tepalikka chiqdi. Oqshom tushdi, U hamon o‘sha yerda yolg‘iz edi. 24 Qayiq esa qirg‘oqdan ancha uzoqlashib qolgandi. Shamol qayiqqa qarshi esayotgani uchun to‘lqinlar qayiqqa kelib urilardi.

25 Erta saharda Iso ko‘l ustida yurib, shogirdlari yoniga keldi. 26 Shogirdlar esa ko‘l yuzida yurib kelayotgan Isoni ko‘rib, qattiq vahimaga tushishdi. Qo‘rqqanlaridan:

— Bu arvoh–ku! — deb baqirib yuborishdi. 27 Lekin Iso o‘sha zahoti ularga:

— Dadil bo‘linglar! Qo‘rqmanglar, bu Menman! — dedi. 28 Shunda Butrus:

— Hazrat, agar haqiqatan bu Siz bo‘lsangiz, amr bering, men suv ustida yurib Sizning oldingizga boray, — dedi. 29 Iso:

— Kel! — dedi. Butrus qayiqdan chiqib, suv ustida yurganicha Iso tomon yo‘l oldi. 30 Ammo shamolning kuchli ekanligidan qo‘rqib ketdi. U suvga cho‘ka boshlab:

— Hazrat, meni qutqaring! — deb baqirdi. 31 Iso shu zahoti qo‘lini cho‘zib, Butrusni

ushladi–da:

— Ey imoni sust, nega ikkilanding?! — dedi.

32 Ular qayiqqa tushganlaridan keyin, shamol tindi. 33 Qayiqdagilar Isoga sajda qilib:

— Siz haqiqatan ham Xudoning O‘g‘lisiz!* — dedilar.

34 Ular ko‘ldan suzib o‘tib*, Genisaret* o‘lkasiga keldilar. 35 U yerdagi odamlar Isoni tanidilar va atrofga xabar yuborib, hamma xastalarni Isoning oldiga olib keldilar. 36 Xastalar Isodan: “Hech bo‘lmasa kiyimingizning etagiga qo‘l tekkizaylik”, deb iltimos qilishardi. Unga qo‘l tekkizganlarning hammasi shifo topishardi.

15–BOB

Diniy urf–odatlar va Xudoning amri

1 Quddusdan farziylar va Tavrot tafsirchilari Isoning oldiga kelib, shunday dedilar:

2 — Nega Sizning shogirdlaringiz ota–bobolarimizning urf–odatlariga amal qilmayaptilar? Nega ovqatlanishdan oldin qo‘llarini yuvmaydilar?*

3 Iso ularga javob berib dedi:

— O‘zlaringiz–chi? Nega o‘z urf–odatingizni deb, Xudoning amrini buzib yuribsizlar? 4 Xudo: “Ota–onangizni hurmat qiling. Otasini yoki onasini xo‘rlagan har qanday odamga o‘lim jazosi berilsin”*, deb aytgan. 5 Ammo sizlar shunday ta’lim berasizlar: odam o‘z otasi yoki onasiga: “Farzandlik burchim — Xudoga in’om qilingan, — desa, 6 — u ota–onasini hurmat qilmasa ham bo‘ladi.” Shu tariqa sizlar o‘z ta’limotingiz bilan Xudoning kalomini bekor qilyapsizlar. 7 Sizlar ikkiyuzlamachisizlar! Ishayo payg‘ambar siz haqingizda to‘g‘ri aytgan:

8 “Xudo aytdi:
«Bu xalq Meni tilidagina izzat qiladi*,
Yuraklari esa Mendan uzoqdir.
9 Ular Menga sajda qiladilar,
Ammo sajdalari behudadir.
Chunki ular inson yaratgan qoidalarni
Ilohiy qonun deb o‘rgatadilar.»”*

Insonni nima harom qiladi?

10 Keyin Iso xalqni yoniga chaqirib, dedi:

— Menga quloq solib, tushunib olinglar! 11 Og‘izga kiradigan narsa emas, balki og‘izdan chiqadigan narsa insonni harom qiladi.

12 Shunda shogirdlar Isoning oldiga borib dedilar:

— Aytgan bu gapingiz farziylarga qattiq botganini bildingizmi?

13 Iso shunday javob berdi:

— Osmondagi Otam o‘tqazmagan har qanday o‘simlik ildizi bilan sug‘urib tashlanadi. 14 Farziylarga e’tibor bermanglar. Ular o‘zlari ko‘r va ko‘rlarga yo‘lboshchilik qiladilar. Agar ko‘r odam ko‘rni yetaklasa, ikkalasi ham chuqurga yiqilib tushadi.

15 Shunda Butrus:

— Xalqqa aytgan gapingizni bizga tushuntirib bering! — dedi.

16 — Shunchalik ham befahm bo‘lasizlarmi?! — dedi Iso. 17 — Og‘izga kiradigan har bir narsa qoringa o‘tib, kerakli joydan chiqib ketishini nahotki tushunmasangizlar?

18 Ammo og‘izdan chiqadigan narsalar yurakdan chiqadi. Ana o‘shalar insonni harom
qiladi. 19 Chunki inson yuragidan yomon fikrlar, qotillik, fahshu zino, o‘g‘rilik, soxta
guvohlik va tuhmat chiqadi. 20 Ana shular insonni harom qiladi. Yuvilmagan qo‘l bilan
ovqat yeyish esa insonni harom qilmaydi.

G‘ayriyahudiy ayolning ishonchi

21 Iso u yerdan ketib, Tir va Sidon* hududlariga bordi. 22 Shu yerda yashaydigan
Kan’on xalqidan bo‘lgan bir ayol Isoning oldiga kelib, faryod qildi:

— Ey Hazrat, Dovudning O‘g‘li*, menga rahm qiling! Qizimni jin chalgan, ahvoli
yomon!

23 Iso unga bir og‘iz so‘z ham javob bermadi. Shogirdlari Isoning oldiga kelib, iltimos
qildilar:

— Uni jo‘natib yuboring! Axir, u ketimizdan qolmay, dodlab yuribdi.

24 Iso esa shunday dedi:

— Xudo Meni faqat Isroil xalqining adashgan qo‘ylari oldiga yubordi.

25 Ayol esa kelib, Isoning oldiga tiz cho‘kdi–da:

— Yordam bering, Hazrat! — deb yolvordi. 26 Iso esa:

— Bolalardan nonni olib kuchuklarga tashlash yaxshi emas, — dedi.

27 — To‘g‘ri, Hazrat, — dedi ayol. — Lekin kuchuklar ham xo‘jayinlarining
dasturxonidan to‘kilgan ushoqlarini yeydi–ku.

28 Shunda Iso:

— Ey ayol, sening ishonching buyuk! — dedi. — Mayli, sen istaganingday bo‘lsin.
Shu zahoti ayolning qizi sog‘ayib qoldi.

Iso ko‘p odamlarga shifo beradi

29 Iso u yerdan chiqib, Jalila ko‘li bo‘ylab ketdi. So‘ng toqqa chiqib, o‘tirdi. 30 Isoning
oldiga bir talay olomon keldi. Ular o‘zlari bilan cho‘loq, ko‘r, mayib, soqov va boshqa
ko‘plab xastalarni olib kelib, Isoning oyoqlari tomoniga o‘tqizdilar. Iso ularning
hammasiga shifo berdi. 31 Soqovlarning gapirganini, mayiblarning sog‘ayganini,
cho‘loqlarning yurganini va ko‘rlarning ko‘zlari ochilganini xalq ko‘rib, hayratda qoldi.
Ular Isroil xalqining Xudosini olqishladilar.

Iso 4000 kishini to‘ydiradi

32 Iso shogirdlarini yoniga chaqirib dedi:

— Xalqqa achinyapman. Ular uch kundan beri Men bilan birga, yeyishga hech
narsasi yo‘q. Ularga ovqat bermay jo‘natib yuborishni xohlamayman, yo‘lda holdan toyib
qolishlari mumkin.

33 Shogirdlari Unga:

— Shu qadar katta olomonni to‘ydirish uchun bu kimsasiz joyda qayerdan non
olamiz?! — deyishdi.

34 — Qancha nonlaringiz bor? — deb so‘radi Iso.

— Yettita non va ozgina mayda balig‘imiz bor, — dedi shogirdlar.

35 Shundan keyin Iso xalqqa yerga o‘tirishni buyurdi. 36 Yettita non va baliqlarni olib,
shukrona duosini o‘qidi. Non va baliqlarni sindirib, tarqatish uchun shogirdlariga berdi.
Shogirdlar xalqqa tarqatishdi. 37 Hamma yeb to‘ydi. Ortib qolgan non burdalarini
yig‘ishganda, to‘la yetti savat chiqdi. 38 Bolalar bilan ayollarni hisobga olmaganda, non
yeganlarning soni to‘rt mingta edi. 39 Shundan keyin Iso odamlarga ketishga ijozat berdi,

O‘zi esa qayiqqa o‘tirib, Magadan* hududiga yo‘l oldi.

16–BOB

Farziylar va sadduqiylar Isodan alomat so‘rashadi

1 Farziy va sadduqiy mazhabidagilar Isoning oldiga kelib, Uni sinab ko‘rish
maqsadida:
— Bizga bir mo‘jizali alomat ko‘rsating. Shunda Sizni Xudo yuborganini tan olamiz,
— dedilar. 2 Iso ularga shunday javob berdi:
— Quyosh botganda, sizlar, osmon qizg‘ish, havo yaxshi bo‘ladi, deysizlar. 3 Ertalab
esa, osmon qizil, havoning avzoyi buzuq, bugun bo‘ron bo‘ladi, deysizlar. Sizlar
osmonning avzoyiga qarab, ob–havoni aniqlay olasizlar–ku! Nega zamon alomatlarini
talqin qila olmaysizlar?! 4 Bu qabih va bevafo nasl alomat so‘rayapti, ammo ularga
Yunusning alomatidan* boshqa alomat berilmaydi.
Iso ularni qoldirib ketdi.

Farziylar va sadduqiylarning xamirturushi

5 Narigi qirg‘oqqa* yetib kelgan shogirdlar o‘zlari bilan non olishni unutgan edilar.
6 Iso ularga dedi:
— Farziylar bilan sadduqiylarning xamirturushidan* ehtiyot bo‘linglar!
7 Shogirdlar o‘zlaricha: “Biz non olib kelmaganimiz uchun U shunday deyapti”, deb
muhokama qila boshladilar. 8 Shogirdlar nimani muhokama qilayotganlarini Iso bilib,
ularga dedi:
— Ey imoni sustlar! Nega sizlar, nonimiz yo‘q, deb aytyapsizlar? 9 Hali ham
tushunmadingizlarmi? Besh mingta odamga beshta nonni bo‘lib berganim esingizdami?
O‘shanda qolgan–qutgan nonlarga nechta savatni to‘ldirib olgan edingizlar? 10 Yoki
yettita nonni to‘rt ming kishiga bo‘lib berganim–chi? O‘shanda, non burdalari bilan
nechta savatni to‘ldirib olgan edingizlar? 11 Men sizlarga non haqida gapirmaganimni
hali ham anglamadingizlarmi? Men sizlarga: “Farziylar bilan sadduqiylarning
xamirturushidan ehtiyot bo‘linglar!” deb aytyapman.
12 Shundan keyin shogirdlar tushundilarki, Iso ularni nonga ishlatiladigan
xamirturushdan saqlanish to‘g‘risida emas, balki farziylar bilan sadduqiylarning
ta’limotidan ehtiyot bo‘lish to‘g‘risida ogohlantirayotgan ekan.

Butrus Masihni tan oladi

13 Iso Filip Qaysariyasi* atrofidagi hududga keldi. O‘sha yerda U shogirdlaridan
so‘radi:
— Odamlar Inson O‘g‘lini kim deb biladi?
14 Shogirdlar Unga shunday javob berdilar:
— Ba’zilar Yahyo cho‘mdiruvchi, ba’zilar Ilyos, ba’zilar Yeremiyo*, boshqalar esa,
qadimgi payg‘ambarlardan biri, deb aytib yuribdilar.
15 Iso ulardan so‘radi:
— Sizlar–chi, Meni kim deb bilasiz?
16 Shimo‘n Butrus* javob berib dedi:
— Siz Masihsiz*, Barhayot Xudoning O‘g‘lisiz!*
17 Shimo‘n Butrusga Iso dedi:

— Sen baxtlisan, ey Yuhanno* o‘g‘li Shimo‘n! Axir, bu sirni senga inson emas, balki osmondagi Otam ochib bergan. 18 Shimo‘n, senga shuni aytay: Butrus isming “qoya” degani–ku!* Mana shu qoya ustiga Men O‘zimning jamoatimni* quraman. Hatto o‘lim shohligi ham jamoatimga bas kela olmaydi. 19 Osmon Shohligi kalitlarini Men senga beraman. Yer yuzida sen nimani taqiqlasang, samoda ham taqiqlanadi. Yer yuzida sen nimaga ijozat bersang, samoda ham ijozat beriladi.

20 Bundan so‘ng Iso: “Masih ekanimni hech kimga aytmanglar”, deb shogirdlariga qat’iy buyurdi.

Iso O‘z o‘limi haqida gapiradi

21 Shu vaqtdan boshlab, Iso shogirdlariga quyidagilarni ochiqchasiga tushuntira boshladi: “Men Quddusga borib, yo‘lboshchilar, bosh ruhoniylar* va Tavrot tafsirchilari qo‘lida ko‘p azob chekaman. Meni o‘ldirishadi, lekin uchinchi kuni Men tirilaman.”

22 Shunda Butrus Isoni chetga tortib dedi:

— Bunday deb aytmang, Hazratim! Xudo saqlasin! Boshingizga aslo bunday kunlar kelmasin!

23 Iso esa Butrusga qarab:

— Yo‘qol ko‘zimdan, shayton! — dedi. — Meni yo‘ldan urma! Sen Xudoning ishlarini emas, inson ishlarini o‘ylayapsan.

24 Keyin Iso O‘z shogirdlariga dedi:

— Kimda–kim Menga ergashishni istasa, o‘zidan kechsin va xochini ko‘tarib*, orqamdan yursin. 25 Kim o‘z jonini asrab qolmoqchi bo‘lsa, uni yo‘qotadi. Kim Men uchun jonini bersa, uni asrab qoladi. 26 Agar inson butun dunyoni egallab olsa–yu, o‘z jonidan mahrum bo‘lsa, bundan unga nima foyda?! Inson o‘z joni evaziga qanday to‘lov bera oladi?! 27 Inson O‘g‘li samoviy Otasining ulug‘vorligida, farishtalari bilan kelganda, har kimni o‘z ishiga yarasha taqdirlaydi. 28 Sizlarga chinini aytayin: bu yerda turganlardan ba’zilari, Inson O‘g‘lining Shoh bo‘lib kelganini ko‘rmaguncha, o‘lmaydilar.

17–BOB

Isoning qiyofasi o‘zgaradi

1 Oradan olti kun o‘tdi. Iso yoniga faqat Butrus, Yoqub va Yoqubning ukasi Yuhannoni olib, baland bir toqqa chiqdi. 2 U yerda, ularning ko‘z o‘ngida Isoning qiyofasi o‘zgardi: yuzi quyoshday porlab, kiyimlari ko‘zni qamashtiradigan darajada oppoq bo‘lib qoldi. 3 Birdaniga ularga Muso bilan Ilyos zohir bo‘lishdi. Ular Iso bilan gaplashdilar. 4 Butrus Isoga dedi:

— Hazrat, yaxshi ham shu yerda ekanmiz! Istasangiz, uchta chayla yasayman*: bittasi Sizga, bittasi Musoga, bittasi Ilyosga.

5 U shu gapini tugatmagan ham ediki, birdaniga oppoq bulut paydo bo‘lib, hammalariga soya soldi. Bulut orasidan shunday ovoz keldi:

— Bu Mening sevikli O‘g‘limdir, Undan mamnunman*. Unga quloq solinglar!

6 Shogirdlar ovozni eshitganlarida, shunchalik qo‘rqib ketdilarki, yerga yuz tuban yiqildilar. 7 Iso esa kelib, ularga qo‘l tekkizdi–da:

— Turinglar, qo‘rqmanglar! — dedi. 8 Ular boshlarini ko‘tarib, yolg‘iz Isodan boshqa hech kimni ko‘rmadilar.

9 Tog‘dan tushayotganlarida Iso ularga buyurdi:

— Inson O‘g‘li o‘lib tirilmaguncha, bu ko‘rganlaringizni hech kimga aytmanglar.
10 Shogirdlari Undan so‘radilar:
— Nega Tavrot tafsirchilari, Masihdan oldin Ilyos kelishi kerak*, deb aytadilar?
11 Iso ularga shunday javob berdi:
— To‘g‘ri, avvalo Ilyos kelib, hamma narsani tiklashi kerak. 12 Biroq Men sizlarga shuni aytaman: Ilyos allaqachon kelgan*. Ammo odamlar uni tanimay, uni xohlaganicha xo‘rladilar*. Xuddi shunga o‘xshab, Inson O‘g‘li ham odamlar qo‘lida ko‘p azob chekadi.
13 Shunda shogirdlar tushundilarki, Iso ularga Yahyo cho‘mdiruvchi to‘g‘risida gapirayotgan ekan.

Jinga chalingan bolaga Iso shifo beradi

14 Iso shogirdlari bilan olomon oldiga kelganda, bir odam Isoning oldida tiz cho‘kib:
15 — Hazrat, — dedi, — o‘g‘limga rahm qiling! Uning tutqanoq kasali bor, qattiq azob chekmoqda. U ko‘pincha olovga yoki suvga yiqilib tushadi. 16 O‘g‘limni shogirdlaringiz oldiga olib kelgandim, ammo ular davolay olmadilar.
17 Iso shunday dedi:
— Ey imonsiz va buzuq avlod! Qachongacha sizlar bilan birga bo‘lishim kerak?! Sizlarga yana qancha toqat qilishim kerak?! Bolani bu yerga olib kelinglar!
18 Iso jinga do‘q qildi. Jin bolaning ichidan chiqib ketdi, shu zahoti bola sog‘ayib qoldi.
19 Shogirdlar Iso bilan yolg‘iz qolganlarida, Undan:
— Nega biz jinni quvib chiqara olmadik? — deb so‘radilar. 20-21 Iso javob berib dedi:
— Yetarli imoningiz yo‘qligi uchun* shunday bo‘ldi. Sizlarga chinini aytayin: agar zig‘irday* imoningiz bo‘lib, shu toqqa: “Bu yerdan u yerga ko‘ch”, — deb aytsangiz, tog‘ ko‘chadi. Sizlar uchun imkonsiz narsa bo‘lmaydi*.
22 Iso shogirdlari bilan Jalila hududiga qaytib kelgandan keyin, ularga dedi:
— Inson O‘g‘li odamlar qo‘liga tutib beriladi. 23 Uni o‘ldirishadi, uchinchi kuni esa U tiriladi.
Shogirdlar nihoyatda g‘amgin bo‘lib qoldilar.

Ma’bad solig‘i

24 Iso bilan shogirdlari Kafarnahumga kelganlarida, Ma’bad solig‘ini* yig‘uvchilar Butrusning oldiga kelib:
— Ustozingiz Ma’bad solig‘ini to‘lamaydimi? — deb so‘radilar.
25 — To‘laydi! — deb javob berdi Butrus.
Butrus uyga kelgach, Iso birinchi bo‘lib gapirdi:
— Butrus*, sening fikring qanday? Bu dunyo shohlari soliq va bojni kimdan yig‘adilar? O‘zinikilardanmi yoki begonalardanmi?
26 — Begonalardan–da, — deb javob berdi Butrus.
— Demak, o‘zinikilar soliqdan ozod ekan–da, — dedi Iso. 27 — Ammo ularni norozi qilmaylik. Ko‘lga borib qarmoq tashla. Birinchi ilingan baliqni olib og‘zini ochsang, kumush tangani* topasan. Tangani olib, ikkovimiz uchun soliq to‘la.

18–BOB

Xudo oldida kim buyuk?

1 Shu payt shogirdlar Isoning oldiga kelib: “Osmon Shohligida eng kattasi kim

bo‘ladi?” — deb so‘radilar.
2 Iso yoniga bir bolani chaqirdi, uni o‘rtalarida turg‘izib, 3 dedi: “Sizlarga chinini
aytayin: agar sizlar o‘zgarmasangiz va bolalarday bo‘lmasangiz, hech qachon Osmon
Shohligiga kira olmaysizlar. 4 Agar o‘zingizni mana shu bola singari, past tutsangiz,
Osmon Shohligida eng kattasi bo‘lasiz. 5 Kim shunday bir bolani Mening nomimdan
qabul qilsa, Meni qabul qilgan bo‘ladi.

Vasvasa va gunoh haqida

6 Menga ishongan shu kichiklarning birontasini* yo‘ldan ozdirgan odamning holiga
voy. Bunday qilgandan ko‘ra, o‘sha odamning bo‘yniga tegirmon toshini osib, dengiz
tubiga cho‘ktirilgani o‘zi uchun yaxshiroq bo‘lar edi. 7 Odamlarni yo‘ldan ozdiradigan
vasvasalar dastidan bu dunyoning holiga voy! Vasvasalar albatta keladi, lekin vasvasaga
sababchi bo‘lgan odamning holiga voy!
8 Agar yo‘ldan ozishingga qo‘ling yoki oyog‘ing sababchi bo‘lsa, uni chopib tashlab,
uloqtirib yubor. Ikki qo‘l yoki ikki oyoq bilan abadiy olovga tashlangandan ko‘ra, mayib
yoki cho‘loq bo‘lib abadiy hayotdan bahramand bo‘lganing yaxshiroqdir. 9 Agar yo‘ldan
ozishingga ko‘zing sababchi bo‘lsa, uni o‘yib olib, uloqtirib yubor. Ikki ko‘zing bilan
do‘zax oloviga tushgandan ko‘ra, bir ko‘zing bilan abadiy hayotdan bahramand
bo‘lganing yaxshiroqdir.

Adashgan qo‘y haqida masal

10-11 Ehtiyot bo‘linglar, bu kichiklardan birontasini ham xor qilmanglar. Sizlarga
shuni aytay: samoda ularning farishtalari doimo samoviy Otamning jamolini ko‘rib
turadi*. 12 Nima deb o‘ylaysiz: agar bir odamning yuzta qo‘yi bo‘lsa–yu, ulardan biri
adashib qolsa, u to‘qson to‘qqiztasini tog‘larda qoldirib, adashib qolganini izlab
ketmaydimi?! 13 Agarda uni topib olsa, sizga chinini aytay: adashmagan to‘qson
to‘qqiztasidan ko‘ra, shu bitta qo‘y uchun u ko‘proq sevinadi. 14 Shu singari osmondagi
Otangiz ham bu kichiklardan birontasining yo‘qolib qolishini istamaydi.

Gunoh qilgan birodarga munosabat

15 Agar birodaringiz sizga qarshi gunoh qilsa, uning oldiga boring. U bilan yakka
holda gaplashib aybini yuziga ayting. Agar u sizga quloq solsa, siz orangizdagi birodarlik
rishtalarini tiklagan bo‘lasiz. 16 Agar sizga quloq solmasa, o‘zingiz bilan yana bir yoki ikki
kishini olib boring, chunki «har bir masala ikkita yoki uchta guvohning so‘zlari asosida
ko‘rib chiqiladi.»* 17 Agar birodaringiz ularga ham quloq solmasa, imonlilar jamoatiga*
ayting. Agar imonlilar jamoatiga ham quloq solmasa, uni butparast yoki soliqchi* deb
hisoblab, u bilan aloqani uzing.
18 Sizlarga chinini aytayin: yer yuzida sizlar nimani taqiqlasangizlar, samoda ham
taqiqlanadi. Yer yuzida sizlar nimaga ijozat bersangizlar, samoda ham ijozat beriladi.
19 Sizlarga yana shuni ham aytay: oralaringizdan ikkitangiz yakdil bo‘lib biron narsa
uchun ibodat qilsangizlar, osmondagi Otam tilagingizni bajaradi. 20 Qayerda ikki yoki
uch kishi Mening nomim uchun yig‘ilsa, Men o‘sha yerda ularning orasida bo‘laman.”

Rahmsiz xizmatkor haqida masal

21 Shundan keyin Butrus kelib Isoga dedi: “Hazrat, agar birodarim menga qarshi
gunoh qilsa, uni necha marta kechiray? Yetti martami?”
22 “Sizlarga shuni aytay: yetti marta emas, — dedi Iso, — balki yetmish karra yetti

marta*. 23 Shu sababli Osmon Shohligini bir shohga qiyoslash mumkin. Shoh oʻz
xizmatkorlari bilan hisob–kitob qilmoqchi boʻlibdi. 24 Hisob–kitobni boshlaganda, uning
huzuriga ming–minglab tilla tanga* qarzdor boʻlgan xizmatkorini olib kelibdilar. 25 Lekin
qarz toʻlashga qurbi yetmagani uchun shoh unga:
— Oʻzingni, xotiningni, bolalaringni va butun mol–mulkingni sotib, qarzingni
toʻlaysan, — deb buyuribdi. 26 Xizmatkor shohning oyogʻiga yiqilib:
— Ozgina sabr qiling, hamma qarzimni toʻlayman, — debdi. 27 Xizmatkoriga
shohning rahmi kelibdi. Shoh uni qoʻyib yuborib, qarzidan kechibdi.
28 Xizmatkor esa tashqariga chiqib, oʻzidan yuz kumush tanga* qarzdor boʻlgan bir
sherigini uchratib qolibdi. Uni yoqasidan olib:
— Qarzingni toʻla! — deb boʻgʻa boshlabdi. 29 Sherigi esa uning oyoqlariga yiqilib:
— Ozgina sabr qiling, qarzimni toʻlayman, — deb yolvoribdi. 30 Ammo u koʻnmabdi:
— Qarzingni toʻlamaguningcha zindonda yotasan, — deb sherigini qamatib qoʻyibdi.
31 Boshqa xizmatkorlar yuz bergan voqeani koʻrib, xafa boʻlibdilar. Shohning
huzuriga borib, hammasini aytib beribdilar. 32 Shunda shoh xizmatkorini huzuriga
chaqirib:
— Ey yaramas xizmatkor! — debdi. — Menga yolvorganing uchun barcha
qarzingdan kechdim. 33 Men senga rahm qilganimday, sen ham sherigingga rahm qilsang
boʻlmasmidi?!
34 Gʻazablangan shoh xizmatkorini zindonbonning qoʻliga topshirib:
— Hamma qarzini toʻlamaguncha unga azob beringlar, — deb buyuribdi.
35 Xullas, agar sizlar birodaringizni chin dildan kechirmasangiz, osmondagi Otam
sizlarni ham shu koʻyga soladi.”

19–BOB

Nikoh va ajralish haqida

1 Iso bu gaplarini tugatgandan keyin, Jalila hududini tark etdi. U Iordan daryosining
sharq tomoniga, Yahudiya oʻlkasining narigi tomoniga bordi. 2 Bir talay olomon Isoga
ergashib borgan edi. Iso u yerda xastalarga shifo berdi.
3 Bir necha farziylar Isoning oldiga keldilar va Uni sinamoqchi boʻlib soʻradilar:
— Qonunga koʻra, erkak kishi har qanday sabab bilan oʻz xotinidan ajralishi
mumkinmi?*
4 Iso ularga shunday javob berdi:
— Nahotki sizlar: azalda Yaratuvchi “odamlarni erkagu ayol qilib yaratdi”* degan
soʻzlarni oʻqimagan boʻlsangizlar? 5 “Shuning uchun erkak kishi ota–onasidan boʻlak
boʻlib, xotiniga bogʻlanib qoladi, ikkalasi bir tan boʻladilar.”* 6 Bunga koʻra, ular endi ikki
emas, balki bir tan hisoblanadilar. Xudo birga qoʻshganni bandasi ajratmasin.
7 Farziylar esa Isoga dedilar:
— Unday boʻlsa, nima uchun Muso, erkak oʻz xotiniga taloq xatini yozib berib,
joʻnatib yuborsin, deb amr bergan?*
8 Iso ularga shunday javob berdi:
— Sizlar bagʻri tosh boʻlganlaringiz uchun Muso xotinlaringiz bilan ajrashishga ijozat
bergan, ammo azalda bunday boʻlmagan. 9 Men sizlarga shuni aytayin: kim bevafolikdan
boshqa sabab tufayli oʻz xotini bilan ajrashib, boshqasiga uylansa, zino qilgan boʻladi*.

10 Shogirdlar Isoga dedilar:
— Agar erkakning xotiniga nisbatan shunday majburiyati bo‘lsa, uylanmagan yaxshiroq ekan–da!
11 Iso esa shogirdlariga:
— Ha, bu ta’limotimni hamma ham qabul qilavermaydi, — dedi. — Bu ta’limotim Xudo atagan odamlargagina tegishli. 12 Ba’zi erkaklarning uylana olmasligiga ayrim sabablar bor: ba’zilarning erkakligi tug‘ma zaifdir. Boshqalari esa odamlar tomonidan bichilgan. Yana boshqalari Osmon Shohligi yo‘lida uylanishdan voz kechadilar. Bu ta’limotni qabul qila oladigan qabul qilsin.

Iso bolalarni duo qiladi

13 Iso bolalarimizga qo‘l qo‘yib duo qilsin deb, odamlar Isoning oldiga bolalarni olib kelishdi. Shogirdlar esa bolalarni olib kelgan odamlarni koyidilar. 14 Ammo Iso dedi:
— Bolalarga yo‘l beringlar, Mening oldimga kelishlariga to‘sqinlik qilmanglar! Zero, Osmon Shohligi shundaylarnikidir.
15 Iso bolalarning boshiga qo‘l qo‘yib, duo qildi, keyin O‘z yo‘liga ketdi.

Boylik va abadiy hayot

16 Shu mahal bir odam Isoning yoniga kelib:
— Ustoz!* Abadiy hayotga ega bo‘lishim uchun qanday yaxshi ish qilishim kerak? — deb so‘radi. 17 Iso unga dedi:
— Nega Mendan yaxshi ish to‘g‘risida so‘rayapsan? Faqatgina Xudo yaxshi–ku!* Abadiy hayotdan bahramand bo‘lishni istasang, Xudoning amrlariga rioya qilgin.
18 — Qaysilariga? — deb so‘radi u. Iso dedi:
— “Qotillik qilma. Zino qilma. O‘g‘rilik qilma. Yolg‘on guvohlik berma. 19 Ota–onangni hurmat qil. O‘zgani o‘zingni sevganday sevgin”* degan amrlarga.
20 Yigit Unga dedi:
— Bularning hammasiga amal qilib kelaman. Yana nima qilishim kerak?
21 Iso yigitga aytdi:
— Agar komil bo‘lishni istasang, borib, mol–mulkingni sot, pulini kambag‘allarga tarqat. Shunda samoda xazinang bo‘ladi. Keyin kelib, Menga ergashgin.
22 Yigit bu so‘zlarni eshitib, g‘amgin bo‘lib qaytib ketdi, chunki uning mol–mulki ko‘p edi.
23 Iso shogirdlariga dedi:
— Sizga chinini aytayin: boy odamning Osmon Shohligiga kirishi qiyin bo‘ladi. 24 Sizlarga yana shuni aytay: boyning Xudo Shohligiga kirishidan ko‘ra, tuyaning igna teshigidan o‘tishi osonroqdir.
25 Shogirdlar buni eshitib, g‘oyat ajablanishdi va:
— Unday bo‘lsa, kim najot topa olar ekan? — deyishdi. 26 Iso ularga ko‘z tikib dedi:
— Inson uchun bu imkonsizdir, lekin Xudo uchun hamma narsaning imkoni bor.
27 Shunda Butrus dedi:
— Mana, biz uy–joyimizni tashlab, Sizning orqangizdan ergashib keldik. Buning evaziga nima olamiz?
28 Iso ularga shunday javob berdi: “Sizga chinini aytayin: hamma narsa yangilanganda* va Inson O‘g‘li O‘zining ulug‘vor taxtida o‘tirganda, Mening orqamdan ergashib kelgan sizlar ham o‘n ikkita taxtga o‘tirib, Isroilning o‘n ikki qabilasiga

hukmronlik qilasizlar. 29 Men uchun uy–joyini, aka–ukalarini, opa–singillarini, ota–onasini, bolalarini yoki yer–mulkini tashlab ketgan har bir kishi bulardan yuz hissa ortiqrog‘ini olib, abadiy hayotga ega bo‘ladi. 30 Ammo birinchi bo‘lganlarning ko‘plari oxirgi bo‘ladilar, oxirgilar esa birinchi bo‘ladilar.

20–BOB

Mardikorlar haqida masal

1 Osmon Shohligi erta saharda uzumzoriga mardikorlar yollagani chiqqan bog‘ egasiga o‘xshaydi. 2 Bog‘ egasi mardikorlarga, sizlarga bir kumush tangadan*, odatdagi bir kunlik ish haqini to‘layman, deb ular bilan kelishibdi. So‘ng ularni o‘zining uzumzoriga yuboribdi.

3 Soat to‘qqizlarda u bozor maydoniga chiqqan ekan, bekor turgan bir necha odamlarni ko‘rib, 4 ularga:

— Sizlar ham mening uzumzorimga boringlar, tegishli ish haqingizni to‘layman, — debdi. Ular boribdi.

5 Bog‘ egasi soat o‘n ikkilarda va uchda bozor maydoniga chiqib, yana shunday qilibdi. 6 Soat beshlarda tag‘in bozor maydoniga borsa, bekor turgan yana boshqalarni ko‘ribdi–da:

— Nega sizlar bu yerda kun bo‘yi bekor turibsizlar? — deb so‘rabdi. 7 Ular:

— Hech kim bizni ishga yollamadi, — deb javob beribdilar. Shunda bog‘ egasi:

— Sizlar ham mening uzumzorimga borib ishlanglar*, — debdi.

8 Kech bo‘lganda, uzumzor egasi o‘zining ishboshisiga:

— Mardikorlarni chaqirib, ularga ish haqlarini ber. Oxir kelganlardan boshlagin, birinchi kelganlarga oxirida berasan, — deb buyuribdi. 9 Shunday qilib, soat beshlarda ish boshlaganlar bir kumush tangadan olishibdi. 10 Birinchi kelganlarga haq to‘lash navbati kelganda, ular: “Biz ko‘proq olamiz”, deb o‘ylabdilar. Ammo ularning har biriga ham bir kumush tangadan berilibdi. 11 Ular pullarini olgach, bog‘ egasiga noroziligini bildira boshlashibdi:

12 — Manavi oxirgi kelganlar bir soatgina ishlashdi, biz esa kun bo‘yi jaziramada mehnat qildik. Ammo siz bizning mehnatimizni ularning qilgan ishi bilan teng ko‘rdingiz.

13 Bog‘ egasi ulardan biriga shunday dedi:

— Do‘stim, men senga nohaqlik qilganim yo‘q. Sen bilan bir kumush tangaga kelishgan edik–ku! 14 Endi haqingni olgin–u, jo‘na. Mana bu oxirgi kelganlarga sen bilan baravar ish haqi berishni xohladim. 15 O‘zimning pulimni xohlaganimcha sarf qila olishga haqim yo‘qmi?! Yoki mening saxiyligimni ko‘rolmayapsanmi?

16 Shunday qilib, oxirgilar birinchi bo‘ladilar, birinchilar esa oxirgi bo‘ladilar*.”

Iso O‘z o‘limi to‘g‘risida uchinchi marta gapiradi

17 Iso Quddusga ketayotganda, o‘n ikki shogirdini chetga olib, ularga dedi:

18 — Mana, biz Quddusga ketyapmiz. U yerda Inson O‘g‘li bosh ruhoniylar va Tavrot tafsirchilari qo‘liga tutib beriladi. Ular Inson O‘g‘lini o‘limga mahkum qiladilar. 19 So‘ng g‘ayriyahudiylarga* topshiradilar. G‘ayriyahudiylar Uni haqoratlaydilar, qamchilaydilar va xochga mixlaydilar. Ammo uchinchi kuni U tiriladi.

Bir onaning tilagi

20 O‘sha paytda Zabadiyoning xotini ikki o‘g‘lini* boshlab, Isoning oldiga keldi. U
Isodan bir narsa iltimos qilmoqchi bo‘lib, Unga ta’zim qildi. 21 Iso ayoldan:
— Nima istaysiz? — deb so‘radi.
— Shohligingizda o‘g‘illarimning biri Sizning o‘ng tomoningizda*, biri chap
tomoningizda o‘tirsin! — dedi Unga ayol. 22 Iso shunday dedi:
— Sizlar nima so‘rayotganingizni bilmaysizlar. Men ichadigan azob kosasidan* sizlar
icha olasizlarmi?*
— Icha olamiz! — deb javob berdi ular. 23 Iso ularga dedi:
— Sizlar–ku Men ichadigan azob kosasidan ichasizlar*, ammo Mening o‘ng va chap
tomonimda o‘tirishga ruxsat berish O‘z ixtiyorimda emas. Bu o‘rinni osmondagi Otam
kimlarga atagan bo‘lsa, o‘shalarniki bo‘ladi.
24 Qolgan o‘nta shogird buni eshitib, ikkala aka–ukadan achchiqlanib ketishdi. 25 Iso
esa ularni yoniga chaqirib, dedi:
— Butparastlarga qaranglar, ularning hukmdorlari xalqlariga o‘z hukmini
o‘tkazadilar, katta amaldorlari elga zo‘ravonlik qiladilar. 26 Ammo sizlarning orangizda
bunday bo‘lmasin. Aksincha, orangizda kim katta bo‘lishni istasa, sizlarga xizmat qilsin.
27 Orangizda kim birinchi bo‘lishni istasa, sizlarga qul bo‘lsin. 28 Axir, Inson O‘g‘li ham
O‘ziga xizmat qildirish uchun emas, balki O‘zi boshqalarga xizmat qilish va O‘z jonini
fido qilib, ko‘plarni ozod qilish uchun kelgan.

Iso ikki ko‘rga shifo beradi

29 Iso bilan shogirdlari Yerixodan ketar ekanlar, bir talay olomon Isoga ergashdi.
30 Yo‘l bo‘yida ikkita ko‘r odam o‘tirgan edi. Ular oldilaridan Iso o‘tib ketayotganini
eshitib:
— Ey Hazrat, Dovud O‘g‘li*, bizlarga rahm qiling! — deb baqirdilar. 31 Olomon esa:
— Jim bo‘linglar! — deb ularga do‘q qildi. Ular esa yanada qattiqroq baqirib:
— Ey Hazrat, Dovud O‘g‘li, bizlarga rahm qiling! — deb faryod qilishardi. 32 Iso
to‘xtab, ularni yoniga chaqirdi–da:
— Mendan nima istaysizlar? — deb so‘radi. 33 Ular:
— Hazrat, ko‘zlarimiz ochilsin! — deyishdi.
34 Isoning ularga rahmi kelib, ko‘zlariga qo‘l tekkizdi. Shu zahoti ularning ko‘zlari
ochildi. So‘ng ular Isoning ortidan ergashdilar.

21–BOB

Iso Quddusga tantanali kiradi

1 Iso bilan shogirdlari Quddusga yaqinlashib, Zaytun tog‘i* etagidagi Baytfagiya
qishlog‘iga yetib kelishganda, Iso ikki shogirdiga dedi:
2 — Anavi qishloqqa boringlar. U yerga borishingiz bilanoq, bog‘lab qo‘yilgan
eshakni va yonidagi xo‘tikni ko‘rasizlar. Ularni yechib, Mening oldimga olib kelinglar.
3 Agar kimdir sizga biron nima desa, “Bular Rabbimiz Masihga kerak. U darhol bularni
qaytarib yuboradi”, deb aytinglar.
4 Bu voqea payg‘ambarning aytgan quyidagi so‘zlari bajo bo‘lishi uchun yuz bergan
edi:

5 “Quddus xalqiga* ayting:
Mana Shohingiz kelyapti.
Kamtarindir Shohingiz,
U eshakning ustida,
Ha, eshakning bolasini —
Xo‘tikni minib kelyapti.”*

6 Shogirdlar borib, Iso ularga buyurganiday qilishdi. 7 Ular eshak bilan xo‘tikni
Isoning oldiga olib kelishdi. Eshak va xo‘tik ustiga to‘nlarini tashlashdi, Iso xo‘tikka
mindi. 8 Bir talay olomon to‘nlarini yo‘lga poyandoz qildi. Ba’zilari esa daraxt shoxlarini
kesib, yo‘lga to‘shadilar. 9 Oldinda va orqada yurayotgan olomon shunday deb
hayqirardi:

“Dovud O‘g‘liga* tasanno!
Egamiz nomidan kelayotgan Inson baraka topsin!*
Falak toqida Unga tasanno o‘qilsin!”

10 Iso Quddusga kirib kelganda, butun shahar: “Bu kim bo‘ldi?” deb g‘imirlab qoldi.
11 Olomon esa shunday deb javob berardi: “U Jalilaning Nosira shahridan bo‘lgan Iso
payg‘ambar!”

Iso sotuvchilarni Ma’baddan quvadi

12 Iso Ma’badga kirib, ichkarida oldi–sotdi qilayotgan hammani quvib chiqardi.
Sarroflarning* xontaxtalarini va kaptar sotuvchilarning kursilarini ag‘darib yubordi.
13 Iso ularga shunday dedi:
— “Mening uyim, ibodat uyi deb ataladi”*, deb Tavrotda yozilgan–ku! Sizlar esa
Xudoning uyini qaroqchilar uyasiga* aylantirib yuboribsizlar!
14 Ma’badda Isoning oldiga ko‘rlar va cho‘loqlar keldi. Iso ularga shifo berdi. 15 Bosh
ruhoniylar bilan Tavrot tafsirchilari Isoning qilayotgan ajoyib ishlarini ko‘rib va
Ma’baddagi bolalarning: “Dovud O‘g‘liga tasanno!” deb hayqirayotganini eshitib, qattiq
g‘azablandilar.
16 — Ularning nima deyayotganlarini eshityapsanmi? — dedilar Unga.
— Ha, eshityapman! — deb javob berdi Iso. — Nahotki sizlar: “Sen bolalar va
chaqaloqlarga madhiya aytishni o‘rgatding”* degan so‘zlarni hech qachon o‘qimagan
bo‘lsangiz?
17 So‘ng Iso ularni tark etib, Quddusdan chiqib ketdi. U Baytaniya qishlog‘iga* borib,
u yerda tunab qoldi.

Qurib qolgan anjir daraxti

18 Ertalab Iso shaharga qaytib kelayotganda och edi. 19 Yo‘l chetida bir anjir daraxtini
ko‘rib, uning yoniga bordi. Iso barglardan boshqa hech narsa topmay, daraxtga:
— Bundan buyon senda aslo meva bo‘lmasin! — dedi. Anjir daraxti shu zahoti qurib
qoldi. 20 Shogirdlar buni ko‘rib:
— Qanday qilib anjir daraxti darrov qurib qoldi? — deb hayron bo‘ldilar.
21 Iso ularga shunday dedi:
— Sizlarga chinini aytayin, agar shubhalanmay ishonsangiz, nafaqat anjir daraxtini
shu ko‘yga sola olasiz, balki mana bu toqqa: “Qo‘porilib, dengizga otil”, — desangiz,

aytganingiz bo‘ladi. 22 Ishoning, shunda ibodatda nimaiki so‘rasangiz, olasiz.

Isoning hokimiyati haqida savol

23 Iso Ma’badga kirib ta’lim berayotganda, bosh ruhoniylar va xalq yo‘lboshchilari
Uning oldiga kelib, savol berdilar:

— Siz bu ishlarni qanday hokimiyat bilan qilyapsiz? Bu hokimiyatni Sizga kim bergan?

24 Iso ularga shunday javob berdi:

— Men ham sizlarga bir savol berayin. Agar Menga javob bersangizlar, Men ham bu ishlarni qanday hokimiyat bilan qilayotganimni sizlarga aytaman. 25 Yahyo xalqni suvga cho‘mdirish huquqini Xudodan olganmidi yoki insondanmi?

Ular esa o‘zaro mulohaza yuritdilar:

— Agar: “Xudodan”, — desak, U: “Nega Yahyoga ishonmadingizlar?” — deydi.
26 Agar: “Insondan”, — desak, xalqdan qo‘rqamiz, chunki hamma Yahyoni payg‘ambar deb hisoblaydi.

27 Shunday qilib, ular Isoga:

— Bilmaymiz, — deb javob berdilar. Iso ularga dedi:

— Unday bo‘lsa, Men ham bu ishlarni qaysi hokimiyat bilan qilayotganimni sizlarga aytmayman.

Ikki o‘g‘il haqida masal

28 So‘ng Iso ularga dedi: “Sizlar mana bunga nima deysizlar? Bir odamning ikki o‘g‘li bor ekan. U katta o‘g‘lining yoniga kelib:

— O‘g‘lim, bor, bugun uzumzorda ishla, — debdi.

29 — Bormayman! — debdi o‘g‘il. Ammo keyin aytgan gapiga pushaymon bo‘lib, boribdi. 30 Ota kenja o‘g‘lining oldiga borib, o‘sha gapini aytibdi. Bu o‘g‘il:

— Bo‘pti, boraman, ota, — debdi, ammo bormabdi. 31 Ikkovidan qaysi biri otasining xohishini bajardi?”

“Birinchisi”, — deb javob berdi ular.

Iso ularga: “Sizlarga chinini aytayin, — dedi. — Soliqchilar* bilan fohishalar Xudoning Shohligiga sizlardan oldin kirib boradilar. 32 Chunki Yahyo cho‘mdiruvchi sizning oldingizga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatgani keldi, ammo sizlar unga ishonmadingizlar. Soliqchilar bilan fohishalar esa ishonishdi. Sizlar buni ko‘rib turib ham pushaymon bo‘lmadingizlar, ishonmadingizlar.

Yovuz bog‘bonlar haqida masal

33 Endi boshqa bir masalni eshitinglar: bir yer egasi bor ekan. U uzumzor barpo qilibdi. Atrof–tevaragini devor bilan o‘rab, uzum siqish chuqurini* qazibdi, kuzatuv minorasini quribdi. Keyin uzumzorni bog‘bonlarga ijaraga berib, o‘zi safarga ketibdi.
34 Yig‘im–terim mavsumida xo‘jayin: «Hosildan menga tegishli ulushni olib kelinglar», deb xizmatkorlarini bog‘bonlar oldiga yuboribdi. 35 Bog‘bonlar esa uning xizmatkorlarini tutib olishibdi, birini urib, birini o‘ldirib, boshqa birini esa toshbo‘ron qilishibdi. 36 Shundan keyin u oldingidan ko‘proq xizmatkorlarini bog‘bonlar oldiga jo‘natibdi. Bog‘bonlar esa ular bilan ham xuddi shunday qilishibdi. 37 Oxirida uzumzor egasi:

— O‘g‘limni albatta hurmat etadilar, — deb bog‘bonlar oldiga o‘z o‘g‘lini yuboribdi.
38 Ammo bog‘bonlar uning o‘g‘lini ko‘rganlarida bir–biriga:

— Bu merosxo‘r–ku! Kelinglar, uni o‘ldirib, merosiga ega bo‘laylik, — deyishibdi.
39 Uni tutib, uzumzordan tashqariga chiqarib, o‘ldirishibdi. 40 Xo‘sh, sizningcha,
uzumzorning egasi qaytib kelganda, u bog‘bonlarni nima qiladi?”
41 “U bu yaramaslarni shafqatsizlarcha o‘ldiradi, — deb javob berdi ular. —
Uzumzorni esa boshqa bog‘bonlarga ijaraga beradi. Bu bog‘bonlar uzum hosilini unga
o‘z vaqtida berishadi.”
42 Iso ularga dedi: “Nahotki sizlar Muqaddas bitiklardagi shu so‘zlarni hech
o‘qimagan bo‘lsangiz:

«Binokorlar rad etgan tosh
Binoning tamal toshi* bo‘ldi.
Bu Egamizning qilgan ishidir,
Ko‘z oldimizdagi ajoyibotdir.»*

43 Shuning uchun sizlarga aytaman: Xudoning Shohligi sizlardan tortib olinadi va Shohlik
uchun hosil yetishtiradigan odamlarga beriladi. 44 Kim bu tamal toshiga* yiqilsa, parcha–
parcha bo‘ladi. Tosh kimning ustiga tushsa, uni ezib yuboradi.”
45 Bosh ruhoniylar va farziylar bu masalni eshitib, Iso ular haqida gapirganini
tushundilar. 46 Uni hibsga olmoqchi bo‘ldilar, ammo xalqdan qo‘rqdilar. Chunki xalq
Isoni payg‘ambar deb bilar edi.

22–BOB

To‘y ziyofati haqida masal

1 Iso odamlarga yana masallar bilan gapira boshladi:
2 “Osmon Shohligini o‘g‘liga to‘y ziyofati bergan shohga qiyoslasa bo‘ladi. 3 Shoh
to‘yga taklif etilgan mehmonlarni chaqirish uchun xizmatkorlarini yuboribdi.
Mehmonlar esa kelishni xohlamabdilar. 4 Shoh yana boshqa xizmatkorlarini yuborib,
shunday debdi:
— Taklif etilganlarga aytinglar: men ziyofat dasturxonini tayyorlab qo‘ydim, buqayu
bo‘rdoqilarim so‘yildi, hammasi tayyor. To‘yga kelaveringlar!
5 Biroq ular bu taklifni ham nazarga ilmabdilar, biri dalasiga, boshqasi o‘z ishiga
ketibdi. 6 Qolganlar esa shoh xizmatkorlarini tutib, xo‘rlab, o‘ldirishibdi. 7 Shoh buni
eshitib, g‘azablanibdi. Lashkarini yuborib, qotillarni qatl qildiribdi, shaharlarini esa
yondirib kul qilibdi. 8 Shundan keyin u xizmatkorlariga aytibdi:
— To‘y ziyofati tayyor, lekin taklif etilganlar bunga munosib emas ekanlar. 9 Shuning
uchun chorrahalarga boringlar, kimni ko‘rsangiz, to‘y ziyofatiga taklif qilinglar.
10 Xizmatkorlar yo‘lga chiqib, uchratganlarining hammasini — yomonlarni ham,
yaxshilarni ham yig‘ib kelibdilar. Xullas, to‘yxona mehmonlarga to‘libdi.
11 Shoh mehmonlarni ko‘rish uchun kirganda, u yerda to‘y kiyimini kiymagan bir
odamni ko‘ribdi 12 va undan:
— Do‘stim, to‘y kiyimisiz bu yerga qanday kirdingiz? — deb so‘rabdi, u hech qanday
javob bera olmabdi. 13 Shunda shoh xizmatkorlariga aytibdi:
— Bu odamning qo‘l–oyoqlarini bog‘lab, tashqariga, qorong‘ilikka tashlanglar. U
yerda u qattiq pushaymon bo‘lib, fig‘on chekadi.
14 Axir, da’vat etilganlar ko‘p, ammo tanlanganlar ozdir.”

Soliq to‘lash haqida savol

15 Shunda farziylar kelib, Isoni tilidan ilintirish uchun reja tuzdilar. 16 Ular o‘z
shogirdlarini Hirod tarafdorlari* bilan birga Isoning oldiga yuborishdi.
— Ustoz, — deyishdi ular, — Siz odil ekaningizni bilamiz. Siz Xudoning yo‘lini to‘g‘ri
o‘rgatasiz. Biror kishiga xushomadgo‘ylik, yuz–xotirchilik qilmaysiz. 17 Bizga ayting–chi,
Qaysarga* soliq to‘lashimiz* to‘g‘rimi yoki yo‘qmi?
18 Ammo Iso ularning niyati yomon ekanini bilib turardi. U shunday dedi:
— Hoy ikkiyuzlamachilar! Nima, Meni sinab ko‘rmoqchimisizlar? 19 Soliqqa
to‘lanadigan tangani Menga ko‘rsatinglar.
Ular Isoga bir dinor* keltirdilar.
20 — Bu surat va yozuv kimniki? — deb so‘radi Iso.
21 — Qaysarniki, — deb javob berdi ular.
— Unday bo‘lsa, Qaysarning haqini Qaysarga, Xudoning haqini Xudoga beringlar, —
dedi Iso.
22 Ular buni eshitib lol qoldilar. Isoni o‘z holiga qo‘yib, qaytib ketdilar.

O‘liklarning tirilishi haqida savol

23 Sadduqiylar o‘liklarning tirilishini inkor etardilar. Ularning ba’zilari o‘sha kuni
Isoning oldiga kelib, shunday savol berdilar:
24 — Ustoz! Muso aytgan ediki*: “Agar odam farzand ko‘rmay o‘lib ketsa,
marhumning ukasi akasining xotiniga uylanib, akasi uchun farzandni dunyoga keltirsin.”
25 Xo‘sh, bizda yetti aka–uka bor edi. Birinchisi uylandi, ammo farzand ko‘rmay olamdan
o‘tdi, xotini esa ukasiga qoldi. 26 Ikkinchi, uchinchi, hatto yettinchisigacha, hammasining
boshiga shu ko‘rgilik tushdi. 27 Oxirida xotin ham qazo qildi. 28 Ayting–chi, Xudo
odamlarni tiriltirganda xotin yettovidan qaysi birining xotini hisoblanadi? Axir,
hammasi unga uylangan edi–ku.
29 Iso ularga shunday javob berdi:
— Sizlar Muqaddas bitiklarni* ham, Xudoning qudratini ham bilmaysizlar, ana shu
sababdan adashyapsizlar. 30 O‘liklar tirilganda uylanmaydilar, erga ham tegmaydilar,
balki bamisoli samodagi farishtalarday bo‘ladilar. 31 O‘liklarning tirilishi haqidagi
masalaga kelsak: nahotki Xudoning sizlarga aytgan gaplarini hech qachon o‘qimagan
bo‘lsangizlar?! 32 U: “Men Ibrohim, Is’hoq va Yoqubning Xudosiman”*, — degan–ku! Axir,
Xudo o‘liklarning emas, tiriklarning Xudosidir.
33 Olomon buni eshitib, Isoning ta’limotidan hayratda qoldi.

Eng buyuk amr

34 Iso sadduqiylarni mot qilib qo‘yganini eshitib, farziylar bir joyga yig‘ildilar. 35 Isoni
sinash maqsadida ulardan biri — Tavrot tafsirchisi Unga shunday savol berdi:
36 — Ustoz, Tavrotdagi qaysi amr eng buyuk?
37 Iso unga dedi:
— “Egangiz Xudoni butun qalbingiz bilan, jonu dilingiz bilan, butun ongingiz bilan
seving.”* 38 Bu birinchi va eng buyuk amr. 39 Ikkinchisi esa shunga o‘xshashdir: “O‘zgani
o‘zingizni sevganday seving.”* 40 Butun Tavrot va payg‘ambarlarning hamma bitiklari*
mana shu ikki amrga tayanadi.

Masih kimning o‘g‘li?

41 Farziylar yig‘ilishganda, Iso ulardan so‘radi:

42 — Masih haqida nima deb o‘ylaysizlar? U kimning o‘g‘li?
— Dovudning O‘g‘li*, — deb javob berdi ular. 43 Iso ularga dedi:
— Unday bo‘lsa, qanday qilib Dovud Muqaddas Ruh orqali Masihni Rabbim deb aytadi? Dovud shunday degan edi:

> 44 “Egamiz aytmoqda Rabbimga:
> Dushmanlaringni oyoqlaring ostiga yiqitmagunimcha,
> Sen Mening o‘ng tomonimda* o‘tirgin.”*

45 Agar Dovud Masihni Rabbim deb atagan bo‘lsa, qanday qilib Masih Dovudning O‘g‘li bo‘ladi?!
46 Isoning savoliga hech kim javob bera olmadi. O‘sha kundan boshlab hech kim Unga savol berishga jur’at etolmaydigan bo‘ldi.

23–BOB

Soxta va chin taqvodorlik

1 Shundan keyin Iso olomonga va shogirdlariga gapirdi: 2 “Qonunni izohlash huquqi Tavrot tafsirchilari va farziylarga berilgan. 3 Shu bois ularga quloq solinglar, aytganini qilinglar, ammo qilganini qilmanglar! Chunki ular o‘zlari aytganlarni qilmaydilar. 4 Ular ko‘tarib bo‘lmaydigan og‘ir yukni birovlarga yuklaydilar, o‘zlari esa yordam berish uchun hatto barmog‘ini ham qimirlatmaydilar. 5 Hamma ishlarini boshqalar ko‘rsin deb qiladilar. Peshanalariga taqqan nishonalarini kattaroq, kiyimlarining popuklarini* uzunroq qiladilar. 6 Shuningdek, ziyofatlarda to‘rga chiqishni va sinagogalarda yaxshi joylarda o‘tirishni yoqtiradilar. 7 Bozorlarda odamlar ularga salom berishlarini, «ustoz» deb murojaat etishlarini yaxshi ko‘radilar.
8 Ammo sizlarni hech kim «ustoz» deb chaqirmasin, chunki hammangizning bitta Ustozingiz bor. Sizlar esa bir teng birodaru opa–singilsizlar. 9 Yer yuzida hech kimni ota deb aytmang, chunki sizlarning samoda yagona Otangiz bor. 10 Hech kim sizlarni «yo‘lboshchi» deb ham aytmasin, chunki sizlarning yakkayu yagona yo‘lboshchingiz Masihdir. 11 Orangizda kim bosh bo‘lsa, sizlarga xizmat qilsin. 12 Zotan, o‘zini o‘zi yuksaltirgan kamsitiladi, o‘zini past tutgan esa yuksaltiriladi.

Iso Tavrot tafsirchilariga va farziylarga ta’na qiladi

13-14 Holingizga voy, ey tafsirchilar va farziylar! Sizlar ikkiyuzlamachisizlar! Axir, sizlar odamlar kirmasin deb, Osmon Shohligi eshiklarini berkitib qo‘yyapsizlar. U yerga o‘zlaringiz ham kirmayapsizlar, kirmoqchi bo‘lganlarni ham kirgizmayapsizlar*.
15 Holingizga voy, ey tafsirchilar va farziylar! Sizlar ikkiyuzlamachisizlar! Axir, sizlar hech bo‘lmasa bir kishini o‘z diningizga kiritish uchun dengizu quruqlikni kezib chiqasizlar. Niyatingizga erishganingizda esa, uni o‘zingizdan besh battar do‘zaxi odam qilasizlar.
16 Ey ko‘r yetakchilar, holingizga voy! Sizlar: «Kim Ma’bad haqi deb qasam ichsa, u qasamini bajarmasa ham bo‘ladi, ammo kim Ma’bad oltini haqi deb qasam ichsa, o‘z qasamini bajarishi shart», deysiz. 17 Hoy ko‘r nodonlar! Qaysi biri buyukroq: Ma’badning oltinimi yoki oltinni muqaddas qilgan Ma’badning o‘zimi?! 18 Yana sizlar shunday deb aytasizlar: «Kim qurbongoh haqi deb qasam ichsa, u qasamini bajarmasa ham bo‘ladi,

ammo kim qurbongohdagi qurbonlik haqi deb qasam ichsa, qasamini bajarishi shart», deysizlar. 19 Shu qadar ko‘r bo‘lmasangiz–a! Qaysi biri buyukroq: qurbonlikmi yoki qurbonlikni muqaddas qilgan qurbongohmi? 20 Axir, qurbongoh haqi deb qasam ichgan, ham qurbongohning o‘zi, ham undagi barcha qurbonliklar haqi qasam ichgan bo‘ladi–ku! 21 Ma’bad haqi deb qasam ichgan esa, ham Ma’badning o‘zi, ham Ma’badda yashaydigan Xudo haqi qasam ichgan bo‘ladi. 22 Osmon haqi deb qasam ichgan esa, osmondagi Xudoning taxti va taxtda o‘tirgan Xudoning O‘zi haqi qasam ichgan bo‘ladi.

23 Holingizga voy, ey tafsirchilar va farziylar! Sizlar ikkiyuzlamachisizlar! Sizlar yalpiz, ukrop va ziradan ushr* berasizlar, ammo qonunning adolat, shafqat va imon kabi eng muhim ta’limotlarini pisand qilmaysizlar. Bularning birini bajara turib, ikkinchisini ham tashlab qo‘ymasligingiz kerak edi. 24 Hoy ko‘r yetakchilar! Sizlar ichimligingizdan chivinni suzib olasizlar*, ammo tuyani butunligicha yutib yuborasizlar!

25 Holingizga voy, ey tafsirchilar va farziylar! Sizlar ikkiyuzlamachisizlar! Sizlar piyolayu laganingizning sirtini tozalaysizlar–u, ammo ichi ochko‘zlik va xudbinlikka to‘la. 26 Ey ko‘r farziy! Sen, avvalo, piyola va laganning ichini tozalab ol, shunda ularning sirti ham toza bo‘ladi.

27 Holingizga voy, ey tafsirchilar va farziylar! Sizlar ikkiyuzlamachisizlar! Chunki sizlar ohaklangan qabrlarga* o‘xshaysizlar: qabrlarning tashqi tomoni chiroyli, ammo ichi murdalarning suyaklariga va har xil iflosliklarga to‘la. 28 Shu singari, sizlar ham tashqi tomondan boshqalarga taqvodor bo‘lib ko‘rinasiz, ammo ichingiz ikkiyuzlamachilikka va gunohga to‘la.

Soxta taqvodorlar oladigan jazo

29 Holingizga voy, ey tafsirchilar va farziylar! Sizlar ikkiyuzlamachisizlar! Axir, sizlar payg‘ambarlarga maqbaralar qurib, taqvodorlarning qabrlarini bezatib, 30 shunday deysizlar: «Agar ota–bobolarimiz davrida biz ham yashaganimizda edi, ularga qo‘shilishib payg‘ambarlarning qonini to‘kmagan bo‘lardik.» 31 Bu bilan sizlar payg‘ambarlarni qatl qilganlarning o‘g‘illari ekaningizni tan olyapsizlar. 32 Ota–bobolaringiz boshlagan ishni oxiriga yetkazinglar endi!

33 Hoy ilonlar, zaharli ilonlar zoti! Sizlar do‘zax jazosidan qanday qochib qutulasiz?! 34 Ana shu sababdan Men oldingizga payg‘ambarlarni, donishmandu ustozlarni yuboraman. Ammo sizlar ularning ba’zilarini o‘ldirasizlar, ba’zilarini xochga mixlaysizlar, boshqalarini esa sinagogalaringizda qamchilab, shaharma–shahar quvg‘in qilasizlar. 35 Natijada o‘ldirilgan hamma begunoh odamlarning qoni uchun sizlar jazolanasizlar. Aybsiz Hobilning to‘kilgan qonidan tortib, qurbongoh bilan Ma’bad orasida siz o‘ldirgan Barxiyo o‘g‘li Zakariyoning* qoni sizning gardaningizda bo‘ladi. 36 Ha, sizlarga chinini aytaman: bu nasl hamma qotilliklar uchun jazo oladi.

Isoning Quddus uchun nolasi

37 Eh Quddus, Quddus! Payg‘ambarlarni qatl etib, huzuriga yuborilganlarni toshbo‘ron qiluvchi shahar! Tovuq o‘z jo‘jalarini qanotlari ostiga qanday to‘plasa, Men ham sening xalqingni bir necha marta shunday to‘plamoqchi bo‘ldim. Lekin sen istamading. 38 Ey Quddus aholisi, sizning Ma’badingiz huvullab qoladi. 39 Sizga shuni aytay: «Egamiz nomidan keladigan Inson baraka topsin»*, deb aytmaguningizcha, Meni ko‘rmaysizlar.”

24–BOB

Iso oxirzamon haqida gapiradi

1 Iso Ma’baddan chiqib ketayotganda, shogirdlari kelib, Isoning diqqatini Ma’badning
binolariga qaratdilar. 2 Iso ularga dedi:
— Bularning hammasini koʻryapsizmi? Sizlarga chinini aytayin: bular vayron
boʻladi*. Bu yerda tosh ustida turgan bironta tosh qolmaydi.
3 Iso bir Oʻzi Zaytun togʻida* oʻtirganda, shogirdlari Uning yoniga kelib, soʻrashdi:
— Bizlarga ayting–chi, bu hodisalar qachon yuz beradi? Sizning kelishingizni va
oxirzamon yaqinlashganini nimadan bilsak boʻladi?
4 Iso ularga shunday javob berdi: “Ehtiyot boʻlinglar, hech kim sizlarni yoʻldan
ozdirmasin! 5 Chunki koʻp kishilar oʻzlarini Mening nomim bilan atab: «Men Masihman»,
— deb bir qancha odamni yoʻldan ozdiradilar. 6 Sizlar uzoq–yaqindagi urush xabarlarini
eshitasizlar. Biroq choʻchimanglar! Bular sodir boʻlishi shart, ammo bu hali oxiri degani
emas. 7 Xalq xalqqa qarshi, shohlik shohlikka qarshi koʻtariladi. Ayrim joylarda
qahatchilik va zilzilalar boʻladi. 8 Bu hodisalar toʻlgʻoq azoblarining boshlanishiga
oʻxshaydi.
9 Oʻshanda sizlarni qiynash va oʻldirish uchun tutib beradilar. Mening nomim tufayli
hamma xalqlar sizlardan nafratlanadi. 10 Shunda koʻplar imondan qaytadi, ular bir–
birini sotib, bir–biridan nafratlanadi. 11 Koʻp soxta paygʻambarlar paydo boʻladi, ular
koʻplarni yoʻldan uradi. 12 Yomonlik koʻpgani uchun odamlar orasida mehr–oqibat
yoʻqoladi. 13 Lekin oxirigacha bardosh bergan najot topadi. 14 Osmon Shohligi
toʻgʻrisidagi Xushxabar butun dunyo boʻylab vaʼz qilinadi, hamma xalqlar uni eshitadi.
Shundagina oxirzamon keladi.

Buyuk musibat va Isoning kelishi

15 Doniyor paygʻambar aytganiday, koʻp harom–xarish ishlarga sabab boʻladigan
makruh bir narsaning* muqaddas joyda turganini koʻrganingizda — oʻqigan tushunib
olsin! 16 — Yahudiyada boʻlganlar togʻlarga qochishsin. 17 Tomning ustida boʻlganlar*
uyidan biron narsa olish uchun pastga tushmasin. 18 Dalada boʻlganlar esa toʻnini olgani
qaytib kelmasin. 19 U kunlarda homilador va emizikli ayollarning holiga voy!
20 Qochishingiz qishga yoki Shabbat kuniga toʻgʻri kelmasligi uchun* iltijo qilinglar.
21 Chunki oʻsha vaqtda shunday azob–uqubatlar boʻladiki, dunyo yaratilgandan to
hozirgacha bunaqasi boʻlmagan va qaytib sodir boʻlmaydi. 22 Lekin tanlangan odamlar
tufayligina u kunlar qisqartiriladi. Agar oʻsha kunlar qisqartirilmaganda edi, hech bir
jonzot omon qolmasdi. 23 Agar oʻshanda kimdir sizlarga: «Masih mana bu yerda» yoki:
«Ana u yerda», deb aytsa, ishonmanglar. 24 Chunki soxta masihlar va soxta
paygʻambarlar paydo boʻlib, iloji boʻlsa, tanlangan odamlarni ham yoʻldan ozdirish
uchun buyuk alomatu moʻjizalar koʻrsatadilar. 25 Mana, Men sizlarga oldindan aytib
qoʻydim.
26 Shunday qilib, agar ular sizlarga: «Qaranglar! U sahroda!» deb aytsalar,
bormanglar. Agar ular: «U yashirin joyda», deb aytsalar, ishonmanglar. 27 Chunki Inson
Oʻgʻli kelganda, Uni hamma koʻradi. U sharqdan gʻarbga qadar butun osmonni yoritib
yuborgan chaqmoqday boʻladi.
28 Kalxatlar toʻplangan joyda murda boʻlishini hamma biladi. Mening kelishim ham
shu singari, hammaga ayon boʻladi*.

29 O‘sha kunlardagi azob–uqubatlar o‘tishi bilanoq,

«Quyosh qorayadi, oyning nuri so‘nadi.
Osmondan yulduzlar qulab tushadi,
Samoviy kuchlar larzaga keladi.»*

30 O‘shanda Inson O‘g‘lining alomati osmonda namoyon bo‘ladi. Yer yuzidagi barcha qabilalar qayg‘uradi. Shunda hamma odamlar Inson O‘g‘lini ko‘radi. Inson O‘g‘li qudratga va buyuk ulug‘vorlikka burkanib, bulutlarda keladi*. 31 Karnayning baland sadosi ostida U farishtalarini yerning to‘rt tomoniga yuboradi. Ular dunyoning bir burchagidan tortib, narigi burchagigacha tanlangan odamlarni to‘plab olishadi.

Hushyor bo‘lish haqida

32 Anjir daraxtidan saboq olinglar: uning shoxlari ko‘karib barg chiqarayotganda, yoz yaqinlashganini bilasizlar. 33 Shu singari, mana bu voqealar sodir bo‘lganda, bilingki, o‘sha vaqt* yaqinlashib qolgan, ostonangizda turibdi. 34 Sizlarga chinini aytayin: bu nasl o‘tmasdanoq, bularning hammasi sodir bo‘ladi. 35 Yeru osmon yo‘q bo‘lib ketadi, ammo Mening so‘zlarim kuchda qoladi.

36 O‘sha kun va soat haqida samoviy Otamdan boshqa hech kim bilmaydi. O‘g‘il ham*, samodagi farishtalar ham bilmaydilar. 37 Nuh davrida* qanday bo‘lgan bo‘lsa, Inson O‘g‘li kelishida ham shunday bo‘ladi. 38 To‘fongacha bo‘lgan davrda odamlar yeb–ichardilar, uylanib, turmushga chiqardilar. Nuh kemaga kirgunga qadar hayot shu zaylda davom etardi. 39 To‘fon kelib, ularning hammasini yuvib ketmaguncha, ular hamma narsadan bexabar edilar. Inson O‘g‘li kelganda ham xuddi shunday bo‘ladi. 40 O‘shanda ikki kishi dalada bo‘ladi, biri olinadi, biri qoldiriladi. 41 Tegirmon tortayotgan ikki ayol bo‘ladi, biri olinadi, biri qoldiriladi.

42 Shuning uchun hushyor bo‘linglar. Men — Rabbingiz qaysi kuni kelishimni sizlar bilmaysizlar. 43 Ammo shuni bilib qo‘yingki, agar uy egasi tunning qay paytida o‘g‘ri kelishini bilganda edi, u uyg‘oq o‘tirib, o‘g‘rining uyga buzib kirishiga yo‘l qo‘ymagan bo‘lardi. 44 Shunga o‘xshab, sizlar ham tayyor turinglar, chunki Inson O‘g‘li sizlar kutmagan vaqtda keladi.

Sadoqatli va sadoqatsiz xizmatkor haqida masal

45 Ishonchli va dono xizmatkor kim? Xo‘jayin bunday odamni boshqa xizmatkorlariga boshliq qilib qo‘yadi, ularga o‘z vaqtida ovqat tarqatishni unga topshiradi. 46 Xo‘jayin uyga qaytganda o‘sha xizmatkorini yumush ustida ko‘rsa, xizmatkor naqadar baxtlidir! 47 Sizlarga chinini aytay: xo‘jayin o‘sha xizmatkorini butun mulki ustidan boshqaruvchi qilib qo‘yadi.

48 Bordi–yu, u xizmatkor yomon bo‘lib, ko‘nglida: «Xo‘jayinim hali beri qaytib kelmaydi» deb, 49 boshqa xizmatkorlarni ura boshlasa va sharobxo‘rlar bilan yeb–ichsa, 50 xizmatkor kutmagan kunda, o‘ylamagan soatda xo‘jayini kelib qoladi. 51 U xizmatkorini qattiq jazolab, boshiga ikkiyuzlamachilarning kunini soladi. Shunda xizmatkor qattiq pushaymon bo‘lib, fig‘on chekadi.

25–BOB

Kelinning oʻnta dugonasi haqida masal

1 Oxirzamon yaqinlashganda Osmon Shohligini quyidagiga oʻxshatsa boʻladi:
kelinning oʻnta dugonasi moychiroqlarini olib, kuyovni qarshilagani chiqishibdi.
2 Ulardan beshtasi nodon, beshtasi dono ekan. 3 Nodonlari moychiroqlarni olishibdi–yu,
ammo chiroq uchun moy olishmabdi. 4 Donolari esa moychiroqlari bilan birga idishlarda
moy ham olibdilar. 5 Kuyov kechikibdi, shu sababdan hammalari mudrab, uxlab
qolibdilar.

6 Yarim kechasi: «Ana, kuyov kelyapti! Uni kutib olgani chiqinglar!» degan bir ovoz
yangrabdi. 7 Shunda qizlarning hammasi oʻrnidan turib, moychiroqlarini tayyorlay
boshlabdilar. 8 Nodonlari donolariga aytibdilar:

— Bizga ham moyingizdan ozgina beringlar, chiroqlarimiz oʻchyapti!

9 Donolari esa shunday javob beribdilar:

— Yoʻq! Bizga ham, sizlarga ham moy yetmay qoladi. Yaxshisi, sotuvchilarga borib,
oʻzlaringizga moy sotib olinglar.

10 Ular moy sotib olgani ketishganda, kuyov kelib qolibdi. Tayyor turgan qizlar kuyov
bilan birga toʻyxonaga kirib ketishibdi. Orqalaridan eshik yopilibdi.

11 Keyin qolgan qizlar kelib:

— Hazrat! Hazrat! Bizga eshikni oching! — deyishibdi. 12 Lekin U:

— Sizlarni umuman tanimayman, — deb javob beribdi.

13 Xullas, hushyor boʻlinglar, chunki qaysi kuni, qaysi soatda kelishimni bilmaysizlar.

Uchta xizmatkor haqida masal

14 Yana Osmon Shohligini safarga joʻnab ketayotgan odamga oʻxshatsa boʻladi. U
ketishidan oldin xizmatkorlarini chaqirib, oʻz mol–mulkini ularga topshiribdi. 15 U har
biriga qobiliyatiga yarasha: biriga besh ming tilla, ikkinchisiga ikki ming tilla,
uchinchisiga esa ming tilla* berib, joʻnab ketibdi. 16 Besh ming tilla olgan xizmatkor
vaqtni boy bermay, pulni ishga solibdi va yana besh ming tilla daromad olibdi. 17 Ikki
ming tilla olgan xizmatkor ham xuddi shunday yoʻl tutib, ikki ming tilla orttiribdi.
18 Ming tilla olgan xizmatkor esa borib, chuqur qazibdi–da, xoʻjayin bergan pulini koʻmib
qoʻyibdi.

19 Oradan ancha vaqt oʻtibdi. Xoʻjayin qaytib kelib, xizmatkorlaridan hisobot soʻrabdi.
20 Besh ming tilla olgan xizmatkori orttirgan besh ming tillani ham olib kelib, shunday
debdi:

— Xoʻjayin! Menga besh ming tilla bergan edingiz. Mana, qarang, men bulardan
tashqari yana besh ming tilla ishladim.

21 Xoʻjayini unga:

— Barakalla! Sen yaxshi va ishonchli xizmatkorsan! — debdi. — Kichik ishda
ishonchimni oqlaganing uchun senga katta ishlarni ishonib topshiraman. Kel, mening
xursandchiligimga sherik boʻl.

22 Ikki ming tilla olgan xizmatkor ham kelib:

— Xoʻjayin! Menga ikki ming tilla bergandingiz. Mana, qarang, men bulardan
tashqari yana ikki ming tilla ishladim, — debdi. 23 Xoʻjayini unga:

— Barakalla! Sen yaxshi va ishonchli xizmatkorsan! — debdi. — Kichik ishda
ishonchimni oqlaganing uchun senga katta ishlarni ishonib topshiraman. Kel, mening

xursandchiligimga sherik bo‘l.

24 Ming tilla olgan xizmatkor ham kelib shunday debdi:

— Xo‘jayin! Men sizning qattiqqo‘l odam ekaningizni bilardim. Siz ekmagan yerdan o‘rasiz, o‘zingiz yetishtirmagan hosilni yig‘ib olasiz. 25 Shuning uchun men qo‘rqqanimdan borib, bergan tillangizni yerga ko‘mib qo‘ygan edim. Mana tillangiz!

26 Xo‘jayin unga shunday javob beribdi:

— Ey yomon, yalqov xizmatkor! Men ekmagan yerdan o‘rishimni, o‘zim yetishtirmagan hosilni yig‘ib olishimni bilar ekansan, 27 pulimni muomalaga kiritsang bo‘lmasmidi?! Men qaytib kelib, pulimni foydasi bilan qaytarib olgan bo‘lar edim.

28 So‘ng xo‘jayin debdi:

— Qani, undagi ming tillani olib, o‘n ming tillasi borga beringlar! 29 Chunki kimda bor bo‘lsa, unga yana beriladi va u mo‘l–ko‘lchilikda yashaydi. Kimda yo‘q bo‘lsa, hatto bori ham tortib olinadi. 30 Endi bu yaramas xizmatkorni tashqariga, qorong‘ilikka uloqtirib yuboringlar. U yerda bu yaramas qattiq pushaymon bo‘lib, fig‘on chekadi*.

Qiyomat–qoyim so‘rog‘i

31 Inson O‘g‘li O‘zining ulug‘vorligida, jamiki farishtalari bilan birga kelganda O‘zining shohona taxtiga o‘tiradi. 32 Barcha xalqlar Uning huzuriga to‘planadilar. Cho‘pon qo‘ylarni echkilardan ajratganday, U xalqlarni bir–biridan ajratadi. 33 U qo‘ylarni o‘ng tomoniga, echkilarni chap tomoniga qo‘yadi.

34 Shundan keyin Shoh o‘ng tomonidagilarga aytadi:

— Ey samoviy Otamning barakasini olganlar, kelinglar! Shohlikni meros qilib olinglar! Bu shohlik olam yaratilgandayoq sizlar uchun tayyorlab qo‘yilgan. 35 Axir, Men och edim, Menga ovqat berdingizlar. Chanqagan edim, Menga ichimlik berdingizlar. Musofir edim, uyingizdan boshpana berdingizlar. 36 Yalang‘och edim, Meni kiyintirdingizlar. Kasal edim, Menga g‘amxo‘rlik qildingizlar. Zindonda edim, Meni kelib ko‘rdingizlar.

37 Bunga javoban solihlar Unga shunday deydilar:

— Yo Rabbiy! Qachon Seni och holda ko‘rib, ovqat beribmiz?! Qachon chanqaganingni ko‘rib, biron narsa ichiribmiz? 38 Musofir ekaningni qachon ko‘rib, uyimizdan boshpana beribmiz? Yalang‘och ekaningni qachon ko‘rib, kiyintiribmiz? 39 Kasal yoki zindonda bo‘lganingda qachon Seni yo‘qlab boribmiz?

40 Shoh ularga shunday javob beradi:

— Sizlarga chinini aytayin: sizlar eng kichik birodarimga qilgan har qanday yaxshiligingizni Menga qilgan bo‘lasiz.

41 So‘ng U chap tomondagilarga ham aytadi:

— Ey la’natilar, ko‘zimdan yo‘qolinglar! Iblis va uning farishtalariga tayyorlab qo‘yilgan abadiy olovga mubtalo bo‘linglar! 42 Axir, Men och edim, ovqat bermadingizlar. Chanqagandim, ichgani hech narsa bermadingizlar. 43 Musofir edim, uyingizdan boshpana bermadingizlar. Yalang‘och edim, Meni kiyintirmadingiz. Kasal bo‘ldim, zindonga tushdim, Meni kelib ko‘rmadingiz.

44 Shunda ular aytadilar:

— Yo Rabbiy! Qachon Seni och, chanqagan, musofir, yalang‘och, kasal holda yoki zindonda ekaningni ko‘ribmiz? Agar ko‘rganimizda edi, nahotki Sendan xizmatimizni ayagan bo‘lardik?!

45 U esa shunday javob beradi:
— Sizlarga chinini aytayin: sizlar eng kichik birodarimdan ayagan yaxshiligingizni Mendan ayagan bo‘lasizlar.
46 Bular abadiy jazoga, solihlar esa abadiy hayotga muyassar bo‘ladilar.”

26–BOB

Isoni o‘ldirish rejasi

1 Iso bu gaplarni aytib bo‘lgach, shogirdlariga shunday dedi: 2 “Ikki kundan keyin Fisih ziyofati* bo‘lishini bilasizlar. Ana o‘shanda Inson O‘g‘liga xoinlik qilishadi, Uni xochga mixlashadi.”
3 Bu paytda bosh ruhoniylar va xalq yo‘lboshchilari Kayafas ismli oliy ruhoniyning saroyida yig‘ilgan edilar. 4 Ular Isoni hiyla bilan tutib, o‘ldirish uchun fitna o‘ylab topdilar. 5 Ammo ular: “Biz bu ishni bayram kunlari qilmasligimiz kerak, aks holda, xalq g‘alayon ko‘tarishi mumkin”, dedilar.

Isoga atir moy quygan ayol

6 Iso Baytaniyada* ilgari teri kasalligiga* chalingan Shimo‘nning* uyida 7 mehmon bo‘lib o‘tirgan edi. Shunda bir ayol ganchdan* yasalgan idishda qimmatbaho atir moy olib kelib, Isoning boshidan quydi. 8 Shogirdlar buni ko‘rgach, g‘azablanib:
— Bu isrofgarchilikning nima keragi bor edi?! 9 Axir, bu moyni katta pulga sotib, kambag‘allarga taqsimlab berish mumkin edi–ku! — deyishdi.
10 Shogirdlar nima to‘g‘risida gapirayotganlarini Iso bilib qolib, ularga dedi:
— Nega ayolni xijolatda qoldiryapsizlar? U Men uchun ajoyib ish qildi.
11 Kambag‘allar har doim sizlar bilan birga bo‘ladilar. Men esa har doim ham sizlar bilan birga bo‘lmayman. 12 Ayol bu moyni tanamga to‘kib, Meni dafnga tayyorladi*. 13 Sizlarga chinini aytayin: Xushxabar dunyoning qaysi yerida e’lon qilinmasin, bu ayol ham esga olinib, uning qilgan ishi haqida aytiladi.
14 Shunda o‘n ikki shogirddan biri bo‘lgan Yahudo Ishqariyot bosh ruhoniylarning oldiga borib:
15 — Agar Isoni sizlarga tutib bersam, menga nima berasizlar? — deb so‘radi. Ular Yahudoga o‘ttiz kumush tanga berdilar. 16 O‘sha vaqtdan boshlab Yahudo Isoni tutib berish uchun qulay fursatni kuta boshladi.

Qutlug‘ kecha va Isoga xiyonat

17 Xamirturushsiz non bayramining* birinchi kunida shogirdlar Isoning oldiga kelib dedilar:
— Fisih taomini qayerda yemoqchisiz? Biz borib tayyorgarlik ko‘raylik.
18 Iso dedi:
— Quddusga falonchining oldiga borib, unga shunday deb aytinglar: Ustozimiz sizga: “Vaqtim yetdi. Men Fisih ziyofatini shogirdlarim bilan sizning uyingizda o‘tkazmoqchiman”, deb aytib yubordilar.
19 Shogirdlar Isoning aytganini qilib, Fisih taomini tayyorladilar.
20 Kech kirganda, Iso o‘n ikki shogirdi bilan dasturxon atrofiga yonboshladi.
21 Ovqatlanayotganlarida Iso:
— Sizlarga chinini aytayin, orangizdan bittangiz Menga xiyonat qiladi, — dedi.

22 Shogirdlar qattiq xafa boʻlib, birin–ketin:
— Hazrat, nahotki meni nazarda tutayotgan boʻlsangiz? — deb soʻradilar.
23 U esa shunday javob berdi:
— Men bilan baravar kosaga nonni botirgan Menga xiyonat qiladi. 24 Ha, Inson Oʻgʻli U haqda yozilganday jon beradi. Ammo Inson Oʻgʻliga xiyonat qilgan odamning holiga voy! Uning tugʻilganidan koʻra, tugʻilmagani yaxshiroq edi.
25 Sotqin Yahudo Isoga:
— Ustoz, nahotki oʻsha men boʻlsam? — dedi.
— Oʻzing aytding, — deb javob berdi Iso.
26 Ular ovqatlanayotganda, Iso nonni oldi, duo oʻqib sindirdi. Nonni shogirdlariga berib:
— Olib yenglar, bu Mening tanamdir, — dedi. 27 Sharob quyilgan kosani ham oldi, shukrona duosini oʻqib, ularga uzatdi:
— Bundan hammalaring ichinglar, — dedi. 28 — Bu sharob Xudoning ahdini* bildiradi. Bu ahd koʻplarning gunohini yuvish uchun toʻkiladigan qonim evaziga kuchga kiradi. 29 Sizlarga shuni aytay: bir kun kelib, Men sizlar bilan birga osmondagi Otamning Shohligida yangi sharob ichaman. Ammo oʻsha kun kelmaguncha uzum neʼmatini ogʻzimga ham olmayman.
30 Soʻng ular hamdu sano kuylab, Zaytun togʻi* tomon ketdilar.

Butrusning Isodan tonishi haqida karomat

31 Iso shogirdlariga dedi:
— Bugun kechasi hammalaringiz Meni tashlab, qochib ketasizlar. Chunki yozilgan:

> “Men choʻponni oʻldiraman,
> Shunda suruvdagi qoʻylar har yoqqa tarqalib ketadi.”*

32 Biroq Men tirilganimdan keyin, sizlarni Jalilada kutaman.
33 Butrus Isoga dedi:
— Sizni hamma tashlab ketsa ham, men tashlab ketmayman!
34 Iso unga:
— Senga chinini aytayin, shu kechasiyoq, xoʻroz qichqirmasdan oldin, sen Mendan uch marta tonasan, — dedi. 35 Butrus Unga:
— Kerak boʻlsa, Siz bilan birga oʻlaman! Ammo Sizdan aslo tonmayman! — dedi. Boshqa hamma shogirdlari ham shunday dedilar.

Isoning bogʻdagi ibodati

36 Shundan keyin Iso shogirdlari bilan Getsemaniya* degan joyga bordi. Iso shogirdlariga:
— Shu yerda oʻtirib turinglar, Men nariroqqa borib, ibodat qilaman, — dedi. 37 U yoniga Butrusni va Zabadiyoning ikki oʻgʻlini* oldi. Isoni qaygʻu, gʻam qamradi. 38 U shogirdlariga:
— Yuragimdagi ogʻir qaygʻu Meni oʻlguday qiynab yubordi. Shu yerda qolinglar–da, koʻz–quloq boʻlib turinglar, — dedi. 39 Soʻng bir oz nari ketib, yerga muk tushdi–da, shunday deb yolvordi:
— Ey Otam, agar iloji boʻlsa, bu azob kosasi* Meni chetlab oʻtsin. Ammo Mening

xohishim emas, Sening xohishing bajo bo‘lsin.

40 U shogirdlari yoniga kelib, ularning uxlab yotganini ko‘rdi. Butrusga dedi:

— Men bilan birga bir soatgina ham uyg‘oq o‘tira olmabsizlar–da! 41 Ko‘z–quloq bo‘lib turinglar, vasvasaga tushib qolmaylik, deb ibodat qilinglar*. Ruh tetik, tana esa zaifdir.

42 Iso ikkinchi marta ketib, shunday deb iltijo qildi:

— Ey Otam! Agar bu azob kosasidan qutulishimning iloji bo‘lmasa, mayli, Men o‘sha kosadan ichaman. Sening xohishing bajo bo‘lsin.

43 U qaytib kelib, shogirdlarining yana uxlab yotganini ko‘rdi. Ularning ko‘zlari yumilib ketayotgan edi. 44 Iso ularning oldidan yana ketib, avvalgi so‘zlarini takrorlab, uchinchi marta ibodat qildi.

45 So‘ng U shogirdlari yoniga qaytib kelib, ularga dedi:

— Haligacha dam olib, uxlab yotibsizlarmi?! Mana, vaqt–soati keldi, Inson O‘g‘li gunohkorlar qo‘liga tutib berilyapti. 46 Turinglar, ketaylik! Ana, Menga xoinlik qiluvchi kelyapti!

Iso hibsga olinadi

47 Iso hali gapini tugatmagan ham ediki, Yahudo kelib qoldi. U o‘n ikki shogirddan biri bo‘lib, uning yonida qilich va tayoq ko‘tarib olgan olomon bor edi. Bu olomonni bosh ruhoniylar va xalq yo‘lboshchilari yuborgan edilar. 48 Xoin Yahudo olomon bilan til biriktirib, shunday degandi: “Men kimni o‘psam, U o‘sha Kishidir. Uni qo‘lga olinglar.” 49 U to‘g‘ri Isoning oldiga borib:

— Assalomu alaykum, Ustoz! — deb, Uni o‘pdi. 50 Iso unga:

— Do‘stim, qiladigan ishingni qila qol, — deyishi bilanoq, odamlar Isoni ushlab, qo‘lga oldilar. 51 Shunda Iso bilan birga bo‘lganlardan biri qilichini qinidan sug‘urdi–da, oliy ruhoniyning xizmatkoriga bir urib, qulog‘ini kesib tashladi. 52 Lekin Iso unga dedi:

— Qilichingni qiniga solib qo‘y! Qilich ko‘targanlarning hammasi qilichdan halok bo‘ladi. 53 Kerak bo‘lganda edi, Men Otamga iltijo qilgan bo‘lardim. U Menga o‘sha zahotiyoq o‘n minglab* farishtalarini yuborgan bo‘lardi. Shuni bilmaysanmi? 54 Lekin bunday qilganimda edi, qanday qilib Muqaddas bitiklar* amalga oshardi? Axir, bularning hammasi sodir bo‘lishi kerak–ku!

55 Shundan so‘ng Iso olomonga dedi:

— Men qaroqchimidim, Meni olib ketgani qilichu tayoqlar bilan kelibsizlar?! Men har kuni Ma’badda ta’lim berardim. Sizlar o‘shanda Meni qo‘lga olmadingizlar. 56 Ammo bularning hammasi payg‘ambarlarning Muqaddas bitiklardagi bashoratlari bajo bo‘lishi uchun ro‘y berdi.

O‘shanda hamma shogirdlari Isoni qoldirib, qochib ketishdi.

Iso yahudiylarning Oliy kengashi oldida

57 Isoni qo‘lga olganlar Uni oliy ruhoniy Kayafasning huzuriga olib keldilar. U yerda Tavrot tafsirchilari bilan yo‘lboshchilar ham yig‘ilishgan edi. 58 Butrus esa Isoning orqasidan masofa saqlab ergashib, oliy ruhoniyning hovlisigacha keldi. Butrus ichkariga kirib, oxiri nima bilan tugarkin, deb kuzatish uchun soqchilarning yoniga o‘tirdi. 59 Bosh ruhoniylar va Oliy kengashning* barcha a’zolari Isoni o‘limga mahkum qilish uchun Unga qarshi soxta dalillar izlar edilar*. 60 Ancha guvohlar chiqqan bo‘lsa–da, yetarlicha ayblovchi dalillar topilmadi. Nihoyat, ikki soxta guvoh so‘zga chiqib, 61 shunday aytishdi:

— Bu Odam: “Men Xudoning Ma’badini buzib, uch kunda uni tiklay olaman”, degan*.
62 Oliy ruhoniy o‘rnidan turib, Isoga:
— Indamay turaverasanmi?! Ularning Senga qo‘ygan ayblariga javob qaytarmaysanmi?! — dedi. 63 Iso esa indamadi. Oliy ruhoniy Unga dedi:
— Barhayot Xudo haqi qasam ichib, ayt: Xudoning O‘g‘li* — Masih Senmisan?
64 Iso unga:
— Gapingiz to‘g‘ri, — dedi. — Bundan buyon sizlar Inson O‘g‘lini Qodir Xudoning o‘ng tomonida o‘tirganini* va osmon bulutlarida kelayotganini ko‘rasizlar*.
65 Shunda oliy ruhoniy o‘z kiyimlarini yirtib* dedi:
— U kufrlik qilyapti–ku! Bizlarga boshqa guvohlarning nima keragi bor?! Uning kufrlik qilganini hozirgina o‘zlaringiz eshitdingizlar. 66 Sizlarning qaroringiz qanday?
— U o‘limga loyiq! — deb javob berdi ular.
67 So‘ng ular Isoning yuziga tupurib, Uni mushtlay boshladilar. Boshqalari esa Unga shapaloq urib:
68 — Ey Masih! Qani, top–chi, Seni kim urdi ekan? — derdilar.

Butrus Isodan tonadi

69 Bu paytda Butrus tashqarida hovlida o‘tirgan edi. Bir cho‘ri qiz uning yoniga kelib:
— Siz ham o‘sha Jalilalik Iso bilan birga edingiz–ku! — dedi. 70 Lekin Butrus hammaning oldida buni inkor etib dedi:
— Nima to‘g‘risida gapirayotganingizni tushunmayapman.
71 So‘ng darvoza oldiga bordi. Shunda boshqa bir cho‘ri qiz uni ko‘rib, u yerda turganlarga:
— Mana bu odam Nosiralik Iso bilan birga edi, — dedi. 72 Butrus esa qasam ichib:
— Men Uni tanimayman! — deb yana Isodan tondi.
73 Bir ozdan keyin u yerda turganlar kelib, Butrusga:
— Sen o‘shalardan ekaning shevangdan* bilinib turibdi, — deyishdi.
74 — Xudo ursin! Men bu Odamni tanimayman! — deb qasam ichdi Butrus. Shu payt xo‘roz qichqirdi. 75 Shunda Butrus Isoning: “Xo‘roz qichqirmasdan oldin, sen Mendan uch marta tonasan” degan gapini esladi. U hovlidan chiqib, achchiq–achchiq yig‘ladi.

27–BOB

Xoin Yahudoning halokati

1 Tong otganda, bosh ruhoniylar va xalq yo‘lboshchilarining hammasi Isoni o‘limga mahkum qilishga kelishib oldilar. 2 Ular Isoni bog‘lab, hokim Pilatga* olib borib topshirdilar.
3 Xoin Yahudo esa Isoning o‘limga mahkum etilganini bilib, qilgan ishidan pushaymon bo‘ldi. U o‘ttiz kumush tangani bosh ruhoniylar bilan yo‘lboshchilarga qaytarib olib keldi. 4 U:
— Men gunoh qildim! Begunoh odamga xoinlik qildim, — dedi. Ular esa:
— Bizga nima?! Bu sening ishing! — deyishdi.
5 Yahudo kumush tangalarni Ma’badga otib yubordi–da, chiqib ketdi. U borib, o‘zini osib o‘ldirdi.
6 Bosh ruhoniylar tangalarni terib olib: “Bu pulni Ma’bad xazinasiga qo‘sha olmaymiz, chunki bular qonga belangan”, — deyishdi. 7 Ular maslahatlashib, bu pulga

kulolning dalasini* sotib oldilar, u yerga musofirlar dafn qilinadigan bo‘ldi. 8 Shuning uchun o‘sha yer bugungacha “Qon Yeri” deb ataladi. 9-10 Shunday qilib, Yeremiyo payg‘ambarning bashorati* bajo bo‘ldi:

> “Ular o‘ttiz kumush tangani olib,
> Kulolning dalasini sotib oldilar.
> Bu pul Isroil xalqining U uchun belgilagan narxi edi.”

Egamizning amri bo‘yicha, Yeremiyoning hayotida ham xuddi shunday voqea yuz bergan edi.

Iso Pilat huzurida

11 Iso hokim Pilatning huzurida turganda hokim Isodan:
— Sen yahudiylarning Shohimisan? — deb so‘radi.
— Siz shunaqa deysiz, — deb javob berdi Iso.
12 Bosh ruhoniylar bilan yo‘lboshchilar Isoni ayblayotganlarida esa, U hech qanday javob bermadi. 13 Shunda Pilat Unga:
— Eshitmayapsanmi, Sening bo‘yningga qancha ayblar qo‘yishyapti! — dedi. 14 Lekin Iso bironta ayblovga javob qaytarmadi. Hokim bunga qoyil qoldi.
15 Hokimning bir odati bor edi: u har Fisih bayramida* olomonning xohishiga ko‘ra, bir mahbusni ozod qilar edi. 16 O‘sha paytda otning qashqasiday taniqli bo‘lgan Yoshua* Barabbas* ismli bir mahbus bor edi. 17 Xalq to‘plangach, Pilat ulardan so‘radi:
— Sizlar kimni ozod qilishimni istaysizlar: Yoshua Barabbasnimi yoki Masih deb atalgan Isonimi?
18 Ular Isoni hasad tufayli qo‘lga tushirishganini Pilat bilar edi. 19 Pilat hukm kursisida o‘tirgan edi, xotini unga shunday xabar yubordi: “Bu Odam aybsiz, Unga biron narsa qila ko‘rmagin, kecha tushimda U sababli qattiq azob tortdim.”
20 Ammo bosh ruhoniylar bilan yo‘lboshchilar olomonni qayrab, Pilatdan: “Barabbasni ozod qiling, Isoni esa o‘ldiring” deb so‘rashga ularni ko‘ndirdilar.
21 Hokim olomondan yana so‘radi:
— Ikkovidan qaysi birini ozod qilishimni istaysizlar?
— Barabbasni! — deb javob berdi ular.
22 — Masih deb nom olgan Isoni nima qilay? — deb so‘radi Pilat.
— Xochga mixlansin! — deyishdi bir og‘izdan.
23 — Nimaga? U nima yomonlik qildi? — deb so‘radi hokim. Lekin olomon:
— Xochga mixlansin! — deb battar baqirardi.
24 Pilat qo‘lidan hech narsa kelmayotganini va g‘alayon boshlanayotganini ko‘rib:
— Bu Odamning* to‘kiladigan qoni uchun men aybdor emasman. Bunga o‘zlaringiz javob berasizlar! — dedi–da, olomonning ko‘zi oldida suv olib, qo‘llarini chaydi. 25 Butun xalq bunga javoban:
— Uning qoni bizning va bolalarimizning gardanida bo‘lsin! — deyishdi.
26 Shundan so‘ng Pilat Barabbasni ozod qildi. Isoni esa qamchilatib, xochga mixlashni buyurdi.

Isoni haqorat qilishadi

27 Hokimning askarlari Isoni hukumat saroyiga olib borib, butun bo‘linmani Uning

oldiga to‘plashdi. 28 Ular Isoning kiyimlarini yechib olib, Uning egniga qizil to‘n
kiydirdilar. 29 Tikanlardan toj o‘rib, boshiga kiygizdilar. O‘ng qo‘liga qamish tutqizib,
Uning oldida tiz cho‘kkancha: “Yashavor, ey yahudiylarning Shohi!” deb masxara
qildilar. 30 So‘ng Unga tupurib, qamish bilan qayta–qayta boshiga urdilar. 31 Uni shunday
masxara qilganlaridan keyin, ustidagi to‘nni yechib olib, O‘zining kiyimlarini kiydirishdi.
So‘ng Uni xochga mixlash uchun olib ketishdi.

Iso xochga mixlanadi

32 Ular yo‘lda Kirineyalik* Shimo‘n degan kishini uchratib qolib, Isoning xochini*
ko‘tarib borishga uni majbur qildilar. 33 Ular Go‘lgota degan joyga yetib keldilar. Go‘lgota
“bosh suyagi” ma’nosini beradi. 34 Askarlar u yerda Isoga ichgani achchiq o‘t*
aralashtirilgan sharob berdilar. Iso uni tatib ko‘rdi, ammo ichmadi. 35 Askarlar Isoni
xochga mixlab qo‘yishdi. Kiyimlari uchun qur’a tashlab, o‘zaro bo‘lishib olishdi*. 36 Keyin
o‘sha yerda Isoni qo‘riqlab o‘tirishdi. 37 Isoning bosh tomoniga ular: “Bu yahudiylarning
Shohi Isodir” degan aybnomani osib qo‘ydilar.

38 Iso bilan birga ikkita qaroqchini ham mixlagan edilar. Ularning biri Isoning o‘ng
tomonida, biri chap tomonida edi. 39 O‘tib ketayotganlar boshlarini chayqab, Isoni
haqoratlashardi*:

40 — Ey Ma’badni buzib uch kun ichida tiklaydigan! Agar Xudoning O‘g‘li* bo‘lsang,
O‘zingni O‘zing qutqar–chi! Xochdan tushib ko‘r–chi!

41 Bosh ruhoniylar, Tavrot tafsirchilari va yo‘lboshchilar ham ularga qo‘shilib, Isoni
masxaralay ketishdi:

42 — U boshqalarni qutqarardi, O‘zini esa qutqara olmaydi! U Isroilning Shohi emish!
Qani, xochdan tushsin, shunda biz Unga ishonamiz. 43 U Xudoga ishonardi. Agar Xudo
Undan mamnun bo‘lsa, hozir Uni qutqarsin*. Axir, U O‘zini Xudoning O‘g‘li deb atagan–
ku!

44 Iso bilan birga xochga mixlangan qaroqchilar ham Uni shunday haqoratlar edilar.

Iso jon beradi

45 Tushdan boshlab soat uchgacha* hamma yoq zulmatga cho‘mdi. 46 Soat uchlarda
Iso baland ovoz bilan:

— Eli, Eli, lamo shavaqtani?* — deb faryod qildi. Buning tarjimasi: “Ey Xudoyim! Ey
Xudoyim! Nega Meni tark etding?!”* demakdir. 47 U yerda turgan ba’zilar buni eshitib:

— U Ilyosni* chaqiryapti, — deyishdi. 48 Ulardan biri yugurib borib, shimgichni oldi
va arzon sharobga* botirib, bir qamishning uchiga ildi–da, Isoga ichish uchun uzatdi.
49 Boshqalari esa:

— Qani, ko‘raylik–chi, Ilyos kelib* Uni qutqararmikan, — deyishdi.

50 Ammo Iso qattiq faryod qildi–yu, jon berdi.

51 Shu zahoti Ma’baddagi parda* yuqoridan pastgacha yirtilib, ikkiga bo‘linib ketdi.
Yer larzaga keldi, toshlar yorildi. 52 Qabrlar ochilib, taqvodor odamlarning ko‘pchiligi
tirildi. 53 Ular qabrlaridan chiqdilar, Iso tirilgandan keyin muqaddas Quddus shahriga
bordilar. Ko‘p odamlar ularni ko‘rdi.

54 Isoni qo‘riqlab turgan Rim yuzboshisi bilan yonidagi askarlar zilzilani va sodir
bo‘layotgan barcha ishlarni ko‘rib, vahimaga tushdilar. Ular:

— Haqiqatan ham bu Odam Xudoning O‘g‘li ekan! — dedilar.

55 U yerda bir talay ayollar ham bor edi, ular uzoqdan qarab turgan edilar. U ayollar

Jaliladan Isoga ergashib kelgan va Unga xizmat qilgandilar. 56 Ularning orasida Magdalalik* Maryam, Yoqub bilan Yusufning onasi Maryam va Zabadiyo o‘g‘illarining* onasi ham bor edi.

Iso dafn qilinadi

57 Oqshom tushayotgan paytda* Yusuf degan Arimateyalik* bir boy odam keldi. U ham Isoning shogirdi edi. 58 Yusuf Pilatning huzuriga borib, Isoning jasadini so‘radi. Pilat jasadni unga berishni buyurdi. 59 Yusuf jasadni olib, uni toza zig‘ir matosiga kafanladi 60 va o‘zi uchun qoyaga o‘ydirgan yangi qabrga qo‘ydi. Yusuf katta toshni yumalatib kelib, qabrning og‘zini yopdi va o‘zi ketdi. 61 Magdalalik Maryam bilan boshqa Maryam* u yerda qolib, qabrning ro‘parasida o‘tiraverdilar.

62 Shabbat arafasining ertasiga bosh ruhoniylar va farziylar Pilatning huzuriga yig‘ilishib, 63 dedilar:

— Hazrati oliylari, bir narsa esimizga tushib qoldi: o‘sha yolg‘onchi tirikligida: “Uch kundan keyin Men tirilaman”, degan edi. 64 Shuning uchun buyruq bering: qabr uch kun qo‘riqlansin. Aks holda, Uning shogirdlari borib, jasadni o‘g‘irlab ketadilar–da, odamlarga: “U o‘likdan tirildi” deb aytadilar. Bu yolg‘on birinchisidan* ham battar bo‘ladi.

65 Pilat ularga dedi:

— Xo‘p, qo‘riqchilarni olib, qo‘lingizdan kelgancha, qabrni qo‘riqlanglar.

66 Ular borib, qabr toshiga muhr bosdilar va qabrni qo‘riqlay boshladilar.

28–BOB

Iso tiriladi

1 Shabbat kunining ertasiga, yakshanba kuni tongotarda Magdalalik* Maryam bilan boshqa Maryam* qabrni ko‘rgani borishdi. 2 Shunda to‘satdan qattiq zilzila bo‘ldi, chunki Egamizning farishtasi osmondan tushib, qabr og‘zidagi toshni ag‘darib yubordi. Farishta o‘sha tosh ustiga o‘tirdi. 3 Uning qiyofasi yashinday porlardi, kiyimlari qorday oppoq edi. 4 Uni ko‘rib soqchilar shunchalik qo‘rqib ketdilarki, titrab, murdaday qotib qoldilar.

5 Farishta ayollarga dedi:

— Qo‘rqmanglar! Bilaman, sizlar xochga mixlangan Isoni qidiryapsizlar. 6 U bu yerda yo‘q. O‘zi aytganiday, U tirildi. Mana, kelib ko‘ringlar, U shu yerda yotgan edi. 7 Endi tezroq borib, Uning shogirdlariga: “Iso o‘likdan tirildi. U sizlarni Jalilada kutyapti. Uni o‘sha yerda ko‘rasizlar”, — deb aytinglar. Sizlarga aytadigan gapim shu edi.

8 Ayollar shosha–pisha qabr yonidan ketdilar. Qo‘rquv va cheksiz sevinchga to‘lib, Isoning shogirdlariga xabar bergani yugurib ketdilar. 9 Birdaniga Isoning O‘zi ularning qarshisidan chiqib:

— Salom! — dedi.

Ayollar Isoning oldiga borib, oyoqlariga yopishgancha Unga sajda qildilar. 10 Iso ularga dedi:

— Qo‘rqmanglar! Borib, birodarlarimga: “Jalilaga borar ekansizlar”, deb aytinglar. Ular Meni o‘sha yerda ko‘radilar.

Soqchilarning xabari

11 Ayollar ketganlaridan keyin, soqchilar bo‘linmasidan bir nechtasi shaharga kirib,

yuz bergan voqea to‘g‘risida bosh ruhoniylarga aytib berdilar. 12 Bosh ruhoniylar bilan
yo‘lboshchilar uchrashib, reja tuzdilar. Ular soqchilarga katta miqdorda pul berib,
13 shunday dedilar:

— Sizlar hammaga: “Isoning shogirdlari kechasi kelib, biz uxlab yotganimizda jasadni o‘g‘irlab ketishdi”, deb aytasizlar. 14 Bordi–yu, bu xabar hokimning* qulog‘iga yetib borgudek bo‘lsa, uni o‘zimiz ishontiramiz, sizlarni har qanday ko‘ngilsizlikdan xalos etamiz.

15 Shunday qilib, soqchilar pulni olib, aytilganday qildilar. Voqeaning shu ta’rifi bugungi kungacha* yahudiylar orasida keng tarqalgan.

Buyuk topshiriq

16 O‘n bir shogird Jalila hududiga, Iso ularga tayin etgan toqqa bordilar. 17 Shogirdlar Isoni ko‘rganlari zahoti, Unga sajda qildilar, ba’zilari esa ikkilanib qoldilar.

18 Iso kelib, ularga dedi: “Yeru osmondagi butun hokimiyat Menga berilgan.
19 Shuning uchun borib, barcha xalqlardan shogird orttiringlar. Ularni Ota, O‘g‘il va Muqaddas Ruh nomi bilan suvga cho‘mdiringlar. 20 Men sizlarga buyurgan hamma narsaga amal qilishni ularga o‘rgatinglar. Zotan, Men har doim, dunyoning oxirigacha sizlar bilan birga bo‘laman.”*

IZOHLAR

1:1 *Iso Masihning nasabnomasi* — shu bobning 1-16–oyatlarida Isoning Yusuf orqali bo‘lgan nasabnomasi keltirilgan. Mazkur ro‘yxatdagi *...dan...tug‘ildi* degan ibora ma’nosi *uning avlodi edi* bo‘lishi ham mumkin. Odatda Muqaddas Kitobda berilgan nasabnomalarda hamma nasllarning to‘liq ro‘yxati berilmay, faqat ma’lum bir avlodning ma’lum bir ajdoddan kelib chiqqani ko‘rsatiladi. Ba’zi hollarda esa biror nasabdan tarqalgan nasllarning sonini ko‘rsatish maqsadida nasabnomaga ismlar kiritiladi (shu bobning 17–oyatiga va o‘sha oyatning izohiga qarang).

1:3 *Ram* — yunoncha matnda bu ismning boshqa varianti *Aram* (shu bobning 4–oyatida ham bor). Uning Ram degan shakli 1 Solnomalar 2:9-10 dan olingan.

1:8 *...Yohuram...Yohuram...* — yunoncha matnda bu ismning boshqa varianti *Yoram*. Uning Yohuram degan shakli 3 Shohlar 22:50 dan olingan.

1:11 *Isroil xalqi Bobilga surgun qilingan davr* — miloddan oldingi 586 yilda Bobil shohi Navuxadnazar Quddusni vayron qilib, aholining asosiy qismini Bobilga surgun qilgan edi (4 Shohlar 25:1-21 ga qarang).

1:11 *Yohayixin* — yunoncha matnda *Yoxoniyo*, Yohayixinning yana bir ismi. Shu bobning 12–oyatida ham bor.

1:11 *Isroil xalqi Bobilga surgun qilingan davrda Yo‘shiyo Yohayixinni va boshqa o‘g‘il farzandlarni ko‘rdi* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *Yo‘shiyodan Yohayiqim tug‘ildi. Isroil xalqi Bobilga surgun qilingan davrda Yohayiqim Yohayixinni va boshqa o‘g‘il farzandlarni ko‘rdi*. Yo‘shiyo Yohayixinning bobosi edi.

1:12 *Isroil xalqi Bobilga surgun qilingandan keyin...* — miloddan oldingi 539 yilda Fors shohi Kurush Bobilni bosib oldi. Keyingi yili u Bobilda surgunda yashayotgan yahudiylarga Quddusga qaytib borishga va Ma’badni qayta qurishga ijozat berdi (2 Solnomalar 36:20-23, Ishayo 44:28-45:4 ga qarang).

1:12 *Zarubabel* — Xaggey 1:1 ning oxirgi izohiga qarang.

1:17 *...o‘n to‘rt nasl...o‘n to‘rt nasl...o‘n to‘rt nasldir* — bu sonning qanday ramziy ma’nosi borligi bahsli. O‘n to‘rt soni to‘liqlikka yoki barkamollikka nisbatan tanlangan bo‘lishi mumkin, chunki yettini ikkiga ko‘paytirsa, o‘n to‘rt bo‘ladi. Yetti soni esa barkamollik ramzidir. O‘n to‘rt soni Dovud uchun timsol qilib tanlangan bo‘lishi ham mumkin, chunki ibroniy tilida har bir harf ma’lum bir sonni ifodalaydi va Dovud ismining ibroniycha harflarini ifodalaydigan sonlar qo‘shilganda o‘n to‘rt soni hosil bo‘ladi. Bular muallifning maqsadiga mos keladi, zotan u Isoning haqiqiy Masih — Dovudning o‘g‘li ekanligini ko‘rsatmoqchi.

1:21 *Iso* — yunoncha matnda *Iisus*, bu ism ibroniycha *Yoshua* ismidan olingan bo‘lib, *Egamiz qutqaradi* ma’nosini ifodalaydi.

1:23 Muallif bu o‘rinda Ishayo 7:14 ning qadimiy yunoncha tarjimasidan foydalangan. Bu o‘rinda ishlatilgan yunoncha qiz so‘zi Ishayo 7:14 da ishlatilgan ibroniycha so‘zga o‘xshab, yosh ayolga yoki bokira qizga ishora qilishi mumkin (Ishayo 7:14 ning birinchi izohiga qarang). “Bokira qiz” iborasi Maryamni aniq tasvirlaydi, chunki Maryam er ko‘rmagan edi.

1:25 *O‘g‘il* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *to‘ng‘ich o‘g‘li*.

2:1 *Hirod* — Buyuk Hirod unvoni bilan ham tanilgan bo‘lib, u miloddan oldingi 37-4 yillarda butun qadimgi Falastinda hukmronlik qilgan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi FALASTIN so‘ziga qarang.

2:2 *…Uning yulduzi chiqqanini ko‘rdik* — yoki *…sharqda Uning yulduzini ko‘rdik*.

2:4 *Tavrot tafsirchilari* — Musoning qonunini juda yaxshi bilgan ziyoli odamlar. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi TAVROT TAFSIRCHISI iborasiga qarang.

2:4 *Masih* — bu unvonni yahudiylar kelajakda ularni dushmanlaridan qutqaradigan va butun yer yuzidagi xalqlar ustidan hukmronlik qiladigan insonga nisbatan ishlatganlar. Eski Ahdda Masihning qiladigan ishlari haqida bashoratlar yozilgan. Yangi Ahdga ko‘ra Rabbimiz Iso o‘sha Masihdir. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi MASIH so‘ziga qarang.

2:6 Mixo 5:2 ga qarang.

2:9-10 *Ularga oldin ko‘ringan yulduz* — yoki *Ular sharqda ko‘rgan yulduz*.

2:11 *mirra* — ma’lum bir daraxtlarning qotgan yelimidan tayyorlangan qimmatbaho xushbo‘y modda.

2:15 Xo‘sheya 11:1 ga qarang.

2:18 *Rama shahri* — Quddusdan qariyb 8 kilometr shimolda joylashgan. Rohilaning maqbarasi Rama shahrining yaqinida, Zilzax degan yerda edi (1 Shohlar 10:2 ga qarang). Rohila Yoqubning xotini edi, Yoqub Isroil xalqining bobokaloni edi.

2:18 Yeremiyo 31:15 ga qarang.

2:22 *Arxelayus* — Yahudiya, Samariya va Idumeya hududlarida hukmronlik qilgan.

2:23 *…Egamiz payg‘ambarlar orqali…aytgan bashorati…* — payg‘ambarlarning, Masih haqoratlanadi, rad etiladi, degan bashoratlariga ishora bo‘lishi mumkin (Zabur 21:7-8, Ishayo 53:3 ga qarang). Nosira ahamiyatga ega bo‘lmagan kichkinagina shahar edi. O‘sha davrlarda odamlar Nosiraliklarga past nazar bilan qarar edilar (Yuhanno 1:45-46 ga qarang).

3:1 *O‘sha kunlar* — taxminan milodiy 28 yoki 29 yil nazarda tutilgan (Luqo 3:1-3 oyatlarga va Luqo 3:1 ning ikkinchi izohiga qarang).

3:1 *Yahudiya cho‘li* — Iordan daryosining O‘lik dengizga quyiladigan joyiga yaqin bo‘lgan, daryodan g‘arbda joylashgan yerlar.

3:2 *Osmon Shohligi* — Xudoning hozirgi paytda insonlar hayotidagi hukmronligi va oxiratda har bir yaratilgan mavjudotning yangilanishiga ishora. Bu ibora faqatgina Matto kitobida ishlatilgan va ma’nosi “Xudoning Shohligi” degan ibora bilan bir xil. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi XUDONING SHOHLIGI iborasiga qarang.

3:3 Muallif bu o‘rinda Ishayo 40:3 ning qadimiy yunoncha tarjimasidan foydalangan.

3:4 *…tuya junidan to‘qilgan kiyim…charm kamar…* — Ilyos payg‘ambar va boshqa payg‘ambarlar kiygan kiyimlar (4 Shohlar 1:8, Zakariyo 13:4 ga qarang).

3:7 *Farziy* — yahudiylarning muhim bir diniy mazhabi. Farziylar Tavrot qonunlariga qat'iy rioya qilardilar, og'zaki ravishda tarqalgan urf–odatlarga hamda poklanish udumlariga izchil amal qilardilar. To'liqroq ma'lumotga ega bo'lish uchun lug'atdagi FARZIY so'ziga qarang.

3:7 *sadduqiy* — yahudiylarning muhim bir diniy mazhabi. Farziylardan farqli ravishda, ular og'zaki tarqalgan urf–odatlarni qabul qilmasdilar, balki faqatgina Tavrotda yozilgan qonun–qoidalarga rioya qilardilar. To'liqroq ma'lumotga ega bo'lish uchun lug'atdagi SADDUQIY so'ziga qarang.

3:11 *olov* — imonlilarni poklaydigan Muqaddas Ruhning qudratiga ishora bo'lishi mumkin (Havoriylar 1:5, 8, 2:1-4, 11:16 ga qarang). Ammo bu o'rinda olov so'zi Hukm kuniga ishora qilayotgan bo'lsa kerak (shu bobning 7-10, 12–oyatlariga qarang). Oxiratda odamlar Isoga va Uning ta'limotiga quloq tutgan–tutmaganlariga qarab hukm qilinadilar.

3:17 *Bu Mening sevikli O'g'limdir* — Zabur 2:7 ga qarang.

3:17 *Undan nihoyatda mamnunman* — Ishayo 42:1 ga qarang.

4:3 *iblis* — yunoncha matnda *vasvasaga soluvchi*, iblisga nisbatan aytilgan ibora.

4:3 *Xudoning O'g'li* — Iso Masihning unvoni. To'liqroq ma'lumotga ega bo'lish uchun lug'atdagi XUDONING O'G'LI iborasiga qarang.

4:4 Qonunlar 8:3 ga qarang.

4:6 Zabur 90:11-12 ga qarang.

4:7 Qonunlar 6:16 ga qarang.

4:10 Qonunlar 6:13 ga qarang.

4:12 *Yahyoning hibsga olingani* — 14:3-5 ga qarang.

4:13 *Zabulun va Naftali hududi* — qadimgi Falastinning shimolida bo'lib, Eski Ahd davrida Zabulun va Naftali qabilalari shu yerlarda yashardi, Iso davrida esa u yerlarda ko'plab g'ayriyahudiylar istiqomat qilardi.

4:15-16 Ishayo 9:1-2 oyatlarga va Ishayo 9:1 ning izohlariga qarang.

4:24 *Suriya* — Rim imperiyasiga qarashli bo'lib, Jalila hududining shimolida, chegaradosh viloyat edi.

4:25 *Dekapolis hududi* — Samariya va Jaliladan sharqda joylashgan. Yunonchada Dekapolis nomining ma'nosi — *o'nta shahar*. Dekapolis hududida Yunon va Rim madaniyatlarining markazi bo'lgan o'nta shahar bor edi.

5:16 *osmondagi Otangiz* — Xudoga ishora. Iso ko'pincha Ota unvonini Xudoga nisbatan ishlatgan. To'liqroq ma'lumotga ega bo'lish uchun lug'atdagi XUDONING NOMLARI iborasi ostida berilgan OTA so'ziga qarang.

5:17 *...Tavrot...payg'ambarlarning bitiklari...* — odatda yahudiylar, Eski Ahd to'plami uch qismdan iborat, deb aytadilar. Bu uch qism quyidagilardir: Tavrot (Musoning qonuni degan nom bilan ham yuritiladi), Payg'ambarlar bitiklari (uning tarkibiga ba'zi tarixiy kitoblar ham kirgan) va Bitiklar (Zabur bu qismning birinchi kitobidir). Yahudiylar ba'zan dastlabki ikki qism "Tavrot va Payg'ambarlar bitiklari" deganda

butun Eski Ahd to‘plamini nazarda tutadilar.

5:21 Chiqish 20:13 ga qarang.

5:22 *…hatto g‘azablangan odam…* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *hatto behuda g‘azablangan odam*.

5:27 Chiqish 20:14 ga qarang.

5:31 Qonunlar 24:1 ga qarang.

5:32 *Lekin Men sizlarga aytaman…* — 19:3-9 oyatlarga va 19:3 izohiga qarang.

5:33 Sahroda 30:3, Qonunlar 23:21 ga qarang.

5:35 *buyuk Shoh* — Xudoga ishora.

5:38 Chiqish 21:24, Levilar 24:20, Qonunlar 19:21 ga qarang.

5:41 *Birov* — Rim askari nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin. O‘sha davrda qadimgi Falastin Rim imperiyasi hukmronligi ostida edi.

5:41 *chaqirim* — yunoncha matnda *milion*, taxminan 1,5 kilometrga to‘g‘ri keladi.

5:43 *Yaqiningni sevgin…* — Levilar 19:18 ga qarang.

5:44 *Sizlarni quvg‘in qilganlar uchun ibodat qilinglar* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *Sizni la’natlaganlarni duo qilinglar. Sizdan nafratlanganlarga yaxshilik qilinglar. Sizning nomingizga isnod keltirganlar uchun, sizlarni quvg‘in qilganlar uchun ibodat qilinglar*.

5:46 *soliqchilar* — bu soliqchilar odatda yahudiy bo‘lib turib, Rim davlatiga ishlagani uchun hamma ularni yomon ko‘rardi. Ko‘p soliqchilar firibgarlik qilib, xalqdan soliq uchun keragidan ortiqroq pul undirardilar–da, bu pulni o‘z cho‘ntaklariga urardilar. Mana shuning uchun ham xalq soliqchilardan nafratlanib, ularni o‘z imonini sotgan xoinlar deb bilardi.

6:4 *…sizni taqdirlaydi* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *…sizni aniq taqdirlaydi*. Shu bobning 6, 18–oyatlarida ham bor.

6:13 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida quyidagi so‘zlar oyatga qo‘shimcha qilingan: *Saltanat, kuch–qudrat va shon–shuhrat to abad Senikidir. Omin*.

6:19 *…bunday boylikni kuya yeydi…* — qadimgi paytlarda qimmatbaho kiyimlar va gilamlar xazina hisoblanar edi.

6:27 *lahza* — yunoncha matnda *tirsak*. Odatda bu uzunlikni o‘lchash birligi, ammo ba’zan qisqa vaqtni ham bildiradi. Ba’zi olimlarning fikri bo‘yicha, Iso odamning o‘z bo‘yini o‘stira olmasligiga ishora qilyapti, ammo bu o‘rinda Iso Masih odamning o‘z umrini hatto qisqa vaqtga ham uzaytira olmasligiga ishora qilayotganining ehtimoli ko‘proq.

6:29 *shoh Sulaymon* — 3 Shohlar 10:23-27 ga qarang.

6:33 *Xudoning Shohligi* — 3:2 izohiga qarang.

6:33 *…Uning irodasini bajarish payida bo‘linglar* — yunoncha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *…Uning solihligi payida bo‘linglar*.

7:12 *Tavrot va payg‘ambarlar ta’limoti* — 5:17 izohiga qarang.

7:29 *Tavrot tafsirchilari* — yunoncha matndan. Ba'zi yunon qo'lyozmalarida *Tavrot tafsirchilari va farziylar*.

7:29 *...Tavrot tafsirchilariday emas...* — odatda bu odamlar ta'lim berganda o'z ta'limotlarini asoslab berish maqsadida avval yashab o'tgan e'tiborli, obro'li muallimlarning so'zlarini misol qilib keltirar edilar, ammo Iso bunday qilmagan.

8:2 *teri kasalligi* — bu ibora yunonchada har xil teri kasalliklariga nisbatan ishlatilgan so'zning tarjimasidir. Odatda bu ibora moxov kasalligiga ishora deb tushuniladi. Teri kasalliklaridan birortasiga yo'liqqan kishi harom hisoblanar edi. Xasta odam kasalligini boshqalarga yuqtirmasligi va ularni harom qilmasligi uchun, boshqalardan ajratib qo'yilar edi (Levilar 13:45-46 ga qarang).

8:2 *Hazrat* — yunoncha matnda *kurios*. Bu o'rinda obro'–e'tiborli insonga nisbatan ishlatiladigan so'z sifatida qo'llangan. To'liqroq ma'lumotga ega bo'lish uchun lug'atdagi XUDONING NOMLARI iborasi ostida berilgan RABBIY, RABBIM, RABBIMIZ... so'ziga qarang.

8:4 *ruhoniy* — Quddusdagi Ma'badda xizmat qiladigan e'tiborli din rahnamosi. To'liqroq ma'lumotga ega bo'lish uchun lug'atdagi RUHONIY so'ziga qarang.

8:4 *Poklanganingni hammaga isbot qilish uchun...* — yoki *Men Xudoning qonuniga jiddiy qarashimni ruhoniylar ko'rishlari uchun....*

8:4 *...o'zingni ruhoniyga ko'rsat...Muso amr qilgan qurbonliklarni keltir* — Levilar 14:1-32 ga qarang.

8:5 *Rim* — o'sha davrda qadimgi Falastin Rim imperiyasi hukmronligi ostida edi.

8:12 *Osmon Shohligining merosxo'rlari* — Isroil xalqiga ishora. Yana 22:1-14 ga va Luqo 13:28-30 ga qarang.

8:16 *Kech kirganda...* — yahudiylarning urf–odatiga ko'ra, yangi kun quyosh botgandan keyin boshlanar edi. Matnda tasvirlangan payt Shabbat kunining yakuni va yakshanba kunining boshlanishi edi (Mark 1:21, 29). Yahudiylarda yakshanba haftaning birinchi kuni hisoblanar edi.

8:17 Ishayo 53:4 ga qarang.

8:18 *ko'lning narigi tomoni* — Jalila ko'lining sharqiy qirg'og'iga ishora.

8:20 *Inson O'g'li* — Iso Masih ko'pincha O'ziga nisbatan ishlatgan unvon. To'liqroq ma'lumotga ega bo'lish uchun lug'atdagi INSON O'G'LI iborasiga qarang.

8:22 *ruhan o'lik bo'lganlar* — yunoncha matnda *o'lik bo'lganlar*.

8:28 *Gadara* — yunoncha matndan. Ba'zi yunon qo'lyozmalarida *Gergesa* yoki *Gerasa*. Gadara shahrida va uning atrofidagi qishloqlarda g'ayriyahudiylar istiqomat qilardi.

8:29 *Xudoning O'g'li* — Iso Masihning unvoni. To'liqroq ma'lumotga ega bo'lish uchun lug'atdagi XUDONING O'G'LI iborasiga qarang.

9:8 *...qo'rqib ketdi* — yunoncha matndan. Ba'zi yunon qo'lyozmalarida *hayratga tushdi*.

9:10 *soliqchilar* — 5:46 izohiga qarang.

9:13 Xo'sheya 6:6 ga qarang.

9:17 *...mesh yorilib ketadi...* — qadimgi paytlarda suyuqlik odatda hayvon terisidan

qilingan meshlarda saqlanardi. Uzum sharbati bijg‘ib, sharobga aylanganda, meshlar shishardi. Mesh eskirgani sari o‘z cho‘ziluvchanligini yo‘qotgani bois, yangi sharob eski meshga solinganda, meshni yorib yuborardi.

9:23 *nay chaluvchilarni va dod–faryod qilayotgan olomon* — ba’zan dafn marosimlari paytida dod–faryod qilib, aytib yig‘lash uchun yig‘ichilar yollanardi.

9:27 *Dovud O‘g‘li* — yahudiylar shoh Dovud naslidan kelib chiqadigan Masihni shunday nom bilan atashar edi. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi MASIH so‘ziga qarang.

9:34 *ins–jinslar hukmdori* — Baalzabul nomi bilan ham tanilgan (12:24 ga qarang). Bu nom shayton shohligidagi qudratli bir mavjudotga yoki shaytonning o‘ziga ishora qiladi.

10:3 *soliqchi* — 5:46 izohiga qarang.

10:3 *Taddeyus* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *Lebayus, ya’ni Taddeyus*. Ayrim olimlarning fikri bo‘yicha, bu ism Yoqub o‘g‘li Yahudoning yana bir ismi edi (Luqo 6:16, Havoriylar 1:13 ga qarang). Xoin Yahudodan ajralib turishi uchun unga Taddeyus ismi berilgan bo‘lishi mumkin.

10:4 *vatanparvar* — bu nom Shimo‘nning Rim imperiyasiga qarshilik ko‘rsatgan avom xalq harakatining a’zosi ekaniga ishora qilayotgan bo‘lishi mumkin. Ushbu harakat a’zolari siyosiy, iqtisodiy va diniy maqsadlarni ko‘zlagan edilar.

10:5 *Samariyaliklar* — yahudiylar va Samariyaliklar uzoq vaqt davomida bir–birlariga dushman bo‘lib kelganlar. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi SAMARIYALIK so‘ziga qarang.

10:8 *teri kasalligi* — 8:2 ning birinchi izohiga qarang.

10:14 *…oyoqlaringizdagi changni qoqib ketinglar* — odamlar Xudoning elchilarini rad etganlari uchun, havoriylar oyoqlaridagi changni qoqib ketardilar. Havoriy Pavlus ham shunga o‘xshash harakatni ishlatgan (Havoriylar 18:6 ga qarang). Bu harakat o‘sha odamlarning ayanchli qismatini, ya’ni Xudo tomonidan rad etilishini va Uning shohligidan benasib qolish xavfini anglatardi.

10:15 *Sado‘m va G‘amo‘ra shaharlari* — aholisining o‘ta buzuqligi oqibatida Egamiz vayron qilgan ikkita shahar (Ibtido 18:16-19:28 ga qarang).

10:25 *Baalzabul, ya’ni ins–jinslar hukmdori* — 9:34 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

10:29 *bir tanga* — yunoncha matnda *assarion*, Rim imperiyasidagi mis chaqa. O‘n olti *assarion* bir *dinor* qiymatiga to‘g‘ri kelardi. Bir dinor mardikorning bir kunlik ish haqi edi.

10:35-36 *O‘g‘ilni otasidan…ajratish uchun kelganman. [36] Insonning dushmanlari o‘z uyidagilari bo‘ladi* — Mixo 7:6 ga qarang.

10:38 *…o‘z xochini olib…* — Rim imperiyasi davrida o‘lim jazosining bir turi mahkumni xochga mixlash edi. Bu jazo hammaga ma’lum bo‘lgan. Odatda jinoyatchi o‘zi mixlanadigan xochning ko‘ndalang yog‘ochini hukm ijro etiladigan joyga ko‘tarib olib borar edi (to‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi XOCH so‘ziga qarang). Iso Masih mana shu timsol orqali shogirdlarini hamda Unga ishonganlarni o‘z manfaatlarini ko‘zlamasdan, Unga butunlay o‘zlarini bag‘ishlab va itoat qilib hayot kechirishga, hattoki

U uchun o‘limga ham rozi bo‘lishga da’vat etadi.

11:2 *Yahyo bu paytda zindonda edi…* — 14:3-5 ga qarang.

11:2 *shogirdlari* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *shogirdlaridan ikkitasi*.

11:5 *teri kasalligi* — 8:2 ning birinchi izohiga qarang.

11:10 Malaki 3:1 ga qarang.

11:13 *…hamma payg‘ambarlarning bitiklari…Tavrot kitobi…* — odatda Eski Ahd kitoblari to‘plami shu nom bilan ataladi (5:17 izohiga qarang).

11:14 *kelishi bashorat qilingan Ilyos* — Malaki 4:5-6 ga qarang.

11:19 *soliqchilar* — 5:46 izohiga qarang.

11:19 *…donolik to‘g‘ri ekanligi o‘z natijasidan ayon* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *Xudoning donoligini tan olganlar Uning donoligi to‘g‘ri ekanligini ko‘rsatib turibdilar*.

11:21 *Tir bilan Sidon shaharlari* — Finikiyada muhim ahamiyatga ega bo‘lgan g‘ayriyahudiylar shaharlari. Bu shaharlar Jaliladan shimoli–g‘arbda, O‘rta yer dengizi bo‘yida joylashgan edi. Bugungi kunda bu yer Livan mamlakatining janubiy qismini tashkil qiladi.

11:21 *…qanorga o‘ranib, boshlariga kul sochib…* — qanor dag‘al qoramtir mato bo‘lib, echki yoki tuya junidan to‘qilgan. Qanorga o‘ranib olish va boshga kul sochish umidsizlikni va qayg‘uli holatni ifodalaydi. Ko‘pincha bu harakat Xudodan kechirim so‘rab ibodat qilish va Undan madad tilash bilan birgalikda amalga oshirilgan.

11:23 *Sado‘m* — 10:15 izohiga qarang.

11:29 *bo‘yinturuq* — itoatkorlik va bo‘ysunish ramzi.

12:1 *…shogirdlari…donlarini yeyardilar* — Tavrot qonunlariga ko‘ra, och qolgan odam birovning dalasidan boshoqlarni uzib, donini yeyishi mumkin edi (Qonunlar 23:24-25 ga qarang).

12:2 *Shabbat kuni qonunga xilof ish* — farziylar Tavrotdagi qonunni (Chiqish 34:21 ga qarang) o‘zlaricha jiddiy sharhlab, hatto inson hayotiga oid ikir–chikirlarni ham qonun darajasiga ko‘targanlar. Shuning uchun ular Isoning shogirdlari qilgan ishni Shabbat kuniga xilof ish deb hisoblaganlar.

12:3 *Dovud hamrohlari bilan och qolganda nimalar qilgani* — 1 Shohlar 21:1-6 ga qarang.

12:4 *muqaddas nonlar* — Levilar 24:5-9 ga qarang. Yana lug‘atdagi MUQADDAS NON iborasiga qarang.

12:5 *…ruhoniylar Shabbat qonunini buzsalar ham, aybdor bo‘lmasliklarini Tavrotda o‘qimaganmisizlar?* — Tavrot bo‘yicha, Shabbat kuni ruhoniylar ba’zi bir burchlarini bajarishi mumkin edi (Levilar 24:8, Sahroda 28:9-10 ga qarang).

12:7 Xo‘sheya 6:6 ga qarang.

12:18-21 Ishayo 42:1-4 ga qarang. Muallif shu bobning 21–oyatida Ishayo 42:4 ning qadimiy yunoncha tarjimasidan foydalangan.

12:23 *Dovudning O‘g‘li* — 9:27 izohiga qarang.

12:24 *ins–jinslar hukmdori Baalzabul* — 9:34 izohiga qarang.

12:31 *Muqaddas Ruhga kufrlik qilganlar* — Xudoga ishonishdan bosh tortib, Muqaddas Ruhning ishiga qarshilik ko‘rsatayotgan insonlarga ishora qiladi.

12:39 *Yunus payg‘ambarning alomati* — Yunusni nahang baliq yutib yuborgandan keyin, Xudo uni nahang baliqning qornidan xalos etgandi (Yunus 2:1, 11 ga qarang). Iso Yunusning hayotidagi bu voqeani tilga olib, O‘zining o‘limi va tirilishiga ishora qilmoqda (shu bobning 40–oyatiga qarang).

12:41 *Naynavo* — Yunus davrida Ossuriya shohligining poytaxti edi. Bu shahar Nineviya nomi bilan ham ma’lum.

12:42 *Janub malikasi* — Shava malikasi nazarda tutilgan (3 Shohlar 10:1-10 ga qarang).

13:14-15 Muallif bu o‘rinda Ishayo 6:9-10 ning qadimiy yunoncha tarjimasidan foydalangan.

13:31 *xantal urug‘i* — o‘sha zamonda odamlar xantal urug‘ini eng mayda urug‘ deb bilishardi.

13:33 *bir tog‘ora* — yunoncha matnda *uch saton*, taxminan 22 kiloga to‘g‘ri keladi.

13:35 Zabur 77:2 ga qarang.

13:54 *ona shahri* — ya’ni Nosira.

14:1 *viloyat hukmdori* — yunoncha matnda *tetrarx*. Bu unvon Rim imperiyasi tomonidan joriy qilingan bo‘lib, hokimiyati cheklangan va faqat Rim hukumati ruxsati bilan ish yuritadigan hukmdorga nisbatan qo‘llanilgan. Avom xalq orasida bunday hukmdor shoh deb atalar edi (misol uchun, 14:9 ga va Mark 6:14 ga qarang).

14:1 *Hirod* — Antipas ismi bilan ham tanilgan bo‘lib, Buyuk Hirodning o‘g‘li edi. Antipas Jalila va Pereya hududlarida hukmronlik qilgan.

14:13 *...qayiqqa tushib...* — Jalila ko‘lida.

14:22 *...ko‘lning narigi tomoniga...* — Iso va uning shogirdlari shu paytda ko‘lning aynan qaysi qismida bo‘lganlari aniq emas. “Ko‘lning narigi tomoniga” degan ibora ko‘lning o‘sha qirg‘og‘idagi boshqa bir joyga qayiq bilan suzib borishni ham bildirishi mumkin. An’anaga ko‘ra, Iso bir necha ming kishini to‘ydirgan bu joy ko‘lning shimoli–g‘arb tomonida, Jaliladagi Baytsaydaga yaqin edi.

14:33 *Xudoning O‘g‘li* — Iso Masihning unvoni. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi XUDONING O‘G‘LI iborasiga qarang.

14:34 *Ular ko‘ldan suzib o‘tib...* — shu bobning 22–oyati izohiga qarang.

14:34 *Genisaret* — Kafarnahum shahridan janubi–g‘arbdagi serhosil tekislik.

15:2 *Nega ovqatlanishdan oldin qo‘llarini yuvmaydilar?* — farziylar va Tavrot tafsirchilari ovqatlanishdan oldin qo‘llarining yuvilishiga alohida e’tibor qaratishardi. Ayniqsa ko‘chada, odamlar orasida bo‘lib kelgandan keyin, dasturxonga o‘tirishdan oldin urf–odatlarga ko‘ra qo‘llarini yuvib, o‘zlarini poklab olishardi.

15:4 Chiqish 20:12, 21:17, Levilar 20:9, Qonunlar 5:16 ga qarang.

15:8 *Bu xalq Meni tilidagina izzat qiladi...* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon

qo‘lyozmalarida *Bu xalq Menga yaqinlashar faqat og‘izda, Meni tilidagina izzat qiladi*.

15:8-9 Muallif bu o‘rinda Ishayo 29:13 ning qadimiy yunoncha tarjimasidan foydalangan.

15:21 *Tir va Sidon* — 11:21 ning birinchi izohiga qarang.

15:22 *Dovudning O‘g‘li* — 9:27 izohiga qarang.

15:39 *Magadan* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *Magdala*. Magadan Jalila ko‘lining g‘arbiy qirg‘og‘ida joylashgan bo‘lishi mumkin.

16:4 *Yunusning alomati* — 12:39-41 oyatlarga va 12:39 izohiga qarang.

16:5 *Narigi qirg‘oqqa…* — bu ibora ko‘lning o‘sha qirg‘og‘idagi boshqa bir joyga qayiq bilan suzib borishni ham bildirishi mumkin. Bu o‘rinda shimoli–sharqiy qirg‘oqqa ishora bo‘lsa kerak.

16:6 *xamirturush* — majoziy ma’noda ishlatilgan bo‘lib, odatda boshqalarga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan ta’limotlar va xulq–atvor nazarda tutilgan.

16:13 *Filip Qaysariyasi* — Jalila ko‘lidan qariyb 40 kilometr shimoli–sharqda joylashgan shahar.

16:14 *…Ilyos…Yeremiyo…* — Ilyos yahudiylarning Eski Ahd davrida yashagan eng buyuk payg‘ambarlaridan biri edi. Yahudiylar Ilyosning qaytib kelishini intizorlik bilan kutishardi (Malaki 4:5-6 ga qarang). Yeremiyo ham Eski Ahd davrida yashagan, yahudiylarga yaxshi tanish bo‘lgan payg‘ambar edi.

16:16 *Shimo‘n Butrus* — Iso Masih Shimo‘nga Butrus ismini bergan edi (Mark 3:16, Luqo 6:14 ga qarang). Ba’zan u haqda so‘z yuritilganda, ikkala ism ham birgalikda ishlatiladi.

16:16 *Masih* — bu unvonni yahudiylar kelajakda ularni dushmanlaridan qutqaradigan va butun yer yuzidagi xalqlar ustidan hukmronlik qiladigan insonga nisbatan ishlatganlar. Eski Ahdda Masihning qiladigan ishlari haqida bashoratlar yozilgan. Yangi Ahdga ko‘ra Rabbimiz Iso o‘sha Masihdir. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi MASIH so‘ziga qarang.

16:16 *Xudoning O‘g‘li* — Iso Masihning unvoni. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi XUDONING O‘G‘LI iborasiga qarang.

16:17 *Yuhanno* — yunoncha matnda bu ismning boshqa varianti *Yunus*. Uning Yuhanno degan shakli Yuhanno 1:42, 21:15-17 dan olingan.

16:18 *Butrus isming “qoya” degani–ku!* — Butrus ismi yunonchada *Petros* bo‘lib, ma’nosi *qoya* demakdir.

16:18 *jamoat* — Iso Masihga ishongan odamlar nazarda tutilgan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi JAMOAT so‘ziga qarang.

16:21 *bosh ruhoniylar* — jamiyatning boshqa e’tiborli odamlari qatorida Oliy kengash a’zolari edilar. Oliy kengash yahudiylarning siyosiy va diniy kengashi edi. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi BOSH RUHONIYLAR iborasiga qarang.

16:24 *…xochini ko‘tarib…* — 10:38 izohiga qarang.

17:4 *yasayman* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *yasaylik*.

17:5 *Bu Mening sevikli O‘g‘limdir, Undan mamnunman* — 3:17 ga va o‘sha oyatning izohlariga qarang.

17:10 *...Masihdan oldin Ilyos kelishi kerak...* — 16:14 izohiga qarang.

17:12 *...Ilyos allaqachon kelgan...* — Yahyo cho‘mdiruvchi nazarda tutilgan (shu bobning 13–oyatiga qarang).

17:12 *...uni xohlaganicha xo‘rladilar* — Hirod Hirodiyaning iltimosi bilan Yahyoni qanday qilib qatl qilganiga ishora (14:3-11 ga qarang).

17:20-21 *Yetarli imoningiz yo‘qligi uchun...* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *imoningiz yo‘qligi uchun*.

17:20-21 *zig‘irday* — yunoncha matnda *xantal urug‘iday*. O‘sha zamonda odamlar xantal urug‘ini eng mayda urug‘ deb bilishardi.

17:20-21 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida quyidagi jumla 21–oyatni tashkil etib, qo‘shimcha qilingan: *Bu toifa jinlarni ibodat va ro‘zadan boshqa yo‘l bilan quvib bo‘lmaydi*.

17:24 *Ma’bad solig‘i* — yunoncha matnda *ikki draxmalik tanga*, yahudiy erkaklari Ma’badga to‘lagan soliqqa ishora (Chiqish 30:13-16 ga qarang). Shu bobning 27–oyati izohiga qarang.

17:25 *Butrus* — yunoncha matnda *Shimo‘n*, Butrusning yana bir ismi (Mark 3:16, Luqo 6:14 ga qarang).

17:27 *kumush tanga* — yunoncha matnda *bir statir*, qiymati to‘rt draxmaga teng bo‘lgan kumush tanga, ikkita erkak to‘lashi kerak bo‘lgan Ma’bad solig‘ining miqdori. Draxma yunon tangasi edi. Qiymati Rimdagi bir *dinor* qiymatiga teng kelar edi. Bir dinor mardikorning bir kunlik ish haqi edi.

18:6 *shu kichiklarning birontasi* — Iso Masihga imon keltirgan odamlar, ayniqsa kichik bola singari, ojiz va qarovga muhtoj bo‘lganlar nazarda tutilgan.

18:10-11 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida quyidagi so‘zlar 11–oyatni tashkil etib, qo‘shimcha qilingan: *Inson O‘g‘li esa adashib gumroh bo‘lganlarni qutqarish uchun kelgan*.

18:16 Qonunlar 19:15 ga qarang.

18:17 *jamoat* — ma’lum bir joydagi masihiylar guruhi nazarda tutilgan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi JAMOAT so‘ziga qarang.

18:17 *soliqchi* — 5:46 izohiga qarang.

18:22 *yetmish karra yetti marta* — majoziy ma’noda ishlatilgan ibora, ma’nosi *har doim*.

18:24 *ming–minglab tilla tanga* — yunoncha matnda *o‘n ming talant*. Bir talantning qiymati mardikorning o‘n besh yillik ish haqidan ham ko‘proq edi.

18:28 *yuz kumush tanga* — yunoncha matnda *yuz dinor*. Dinor Rim kumush tangasi bo‘lib, mardikorning bir kunlik ish haqi edi.

19:3 *Qonunga ko‘ra, erkak kishi har qanday sabab bilan o‘z xotinidan ajralishi mumkinmi?* — Qonunlar 24:1 da yozilgan qonuniy ajralishning sabablari haqida yahudiy olimlari ko‘p bahslashardilar. Ba’zi olimlar Qonunlar 24:1 dagi “uyatli qiliq”ni zino deb

talqin qilgan holda, faqatgina xotin zino qilganda ajrashish mumkin, deb aytishardi. Boshqa ba'zi olimlarning fikri bo'yicha, xotin erga biror sababga ko'ra yoqmay qolsa, er xotini bilan ajrashishi mumkin edi. Ular Qonunlar 24:1 dagi "uni yoqtirmay qolsa" iborasiga urg'u berganlar. Iso Masihning ta'limotiga ko'ra esa Xudoning asl maqsadi shu ediki, er va xotin nikohi buzilmasin, ular aslo ajrashmasin (shu bobning 4-6–oyatlariga qarang). Ammo Iso ham Musoning qonunlarida berilgan, bevafolik sababi bilangina ajralish mumkin, degan fikriga qo'shilar edi (shu bobning 8-9–oyatlariga qarang).

19:4 Ibtido 1:27, 5:2 ga qarang.

19:5 Ibtido 2:24 ga qarang.

19:7 *...Muso...amr bergan* — Qonunlar 24:1 ga qarang.

19:9 Yunoncha matndan. Ba'zi yunon qo'lyozmalarida quyidagi so'zlar Isoning gapiga qo'shimcha qilingan: *shuningdek, eridan ajralgan xotinga uylangan ham zino qilgan bo'ladi*.

19:16 *Ustoz!* — yunoncha matndan. Ba'zi yunon qo'lyozmalarida *Valine'mat Ustoz!*

19:17 *Nega Mendan yaxshi ish to'g'risida so'rayapsiz? Faqatgina Xudo yaxshi–ku!* — yunoncha matndan. Ba'zi yunon qo'lyozmalarida *Nega Meni valine'mat deysiz? Birgina Xudodan boshqa hech kim valine'mat emas–ku!*

19:18-19 Chiqish 20:12-16, Qonunlar 5:16-20, Levilar 19:18 ga qarang.

19:28 *...hamma narsa yangilanganda...* — Vahiy 21:1-5 ga qarang.

20:2 *bir kumush tanga* — yunoncha matnda *bir dinor*, Rim kumush tangasi. Shu bobning 9, 10, 13–oyatlarida ham bor.

20:7 Yunoncha matndan. Ba'zi yunon qo'lyozmalarida quyidagi so'zlar bog' egasining gapiga qo'shimcha qilingan: *tegishli haqingizni olasizlar*.

20:16 Yunoncha matndan. Ba'zi yunon qo'lyozmalarida quyidagi so'zlar Isoning gapiga qo'shimcha qilingan: *Axir, da'vat etilganlar ko'p, ammo tanlanganlar ozdir*.

20:19 *g'ayriyahudiylar* — o'sha davrda Yahudiyada hukmronlik qilgan Rim imperiyasi amaldorlariga ishora.

20:20 *ikki o'g'li* — ya'ni Yoqub va Yuhanno.

20:21 *Sizning o'ng tomoningiz* — o'ng tomon muruvvat va baraka o'rni deb hisoblangan.

20:22 *azob kosasi* — yunoncha matnda *kosa*, Isoning azoblari va xochdagi o'limiga ishora (shu bobning 17-19–oyatlariga qarang). "Kosadan ichmoq" iborasi azob–uqubat tortib, jazo olish ma'nosini bildiradi (misol uchun, Zabur 74:9, Ishayo 51:17, Yeremiyo 25:15 ga qarang).

20:22 Yunoncha matndan. Ba'zi yunon qo'lyozmalarida quyidagi so'zlar Isoning gapiga qo'shimcha qilingan: *Men boshdan kechiradigan qayg'u–alamlarga botib chiday olasizlarmi?*

20:23 Yunoncha matndan. Ba'zi yunon qo'lyozmalarida quyidagi so'zlar Isoning gapiga qo'shimcha qilingan: *boshdan kechiradigan qayg'u–alamlarimga o'zingiz ham duchor bo'lasizlar*.

20:30 *Dovud O'g'li* — 9:27 izohiga qarang.

21:1 *Zaytun tog‘i* — Quddus shahrining sharqiy devori bo‘ylab o‘tgan Qidron soyligining narigi tomonidagi tepalik.

21:5 *Quddus xalqi* — yunoncha matnda *Qiz Sion*, Quddus ahliga nisbatan qo‘llangan she’riy usul. Quddusdagi Ma’bad qurilgan tepalik Sion tog‘i deb atalgan. Eski Ahddagi she’riy parchalarda va payg‘ambarlar bitiklarida Sion so‘zi ko‘pincha Quddus shahriga yoki Xudoning xalqiga nisbatan ishlatilgan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi SION so‘ziga qarang.

21:5 Zakariyo 9:9 ga qarang. Yana Ishayo 62:11 ga qarang.

21:9 *Dovud O‘g‘li* — 9:27 izohiga qarang.

21:9 *Egamiz nomidan kelayotgan Inson baraka topsin!* — Zabur 117:26 ga qarang.

21:12 *Sarroflar* — pul ayirboshlovchilar. Ular Rim va Yunon tangalarini yahudiylarning shaqaliga almashtirganlar. Ma’bad solig‘ini to‘lash va qurbonlik qilinadigan hayvonlarni sotib olish uchun shaqal ishlatilgan.

21:13 Ishayo 56:7 ga qarang.

21:13 *qaroqchilar uyasi* — Yeremiyo 7:11 ga qarang.

21:16 Muallif bu o‘rinda Zabur 8:3 ning qadimiy yunoncha tarjimasidan foydalangan.

21:17 *Baytaniya qishlog‘i* — Quddus shahrining sharqiy devori bo‘ylab o‘tgan Qidron soyligining narigi tomonida joylashgan edi.

21:31 *Soliqchilar* — 5:46 izohiga qarang.

21:33 *uzum siqish chuquri* — qadimgi paytlarda odamlar uzumni qoyatoshga o‘yilgan chuqurga yoki tuproqdan qazilgan, tubiga va atrofiga zich qilib tosh terilgan chuqurga solib, sharbatini siqib olish uchun oyoqlari bilan ezardilar. Sharbat o‘sha chuqurdan yana boshqa bir chuqurga oqib tushardi.

21:42 *tamal toshi* — qadimgi paytlarda qurilishda poydevor uchun qo‘yilgan birinchi va eng muhim tosh hisoblanardi. Bu tosh poydevorning bir burchagini hosil qilib, binoning qolgan qismi o‘sha toshning joylashuvi bo‘yicha qurilardi.

21:42 Zabur 117:22-23 ga qarang.

21:44 *bu tamal toshi* — Iso bu so‘zni ramziy ma’noda ishlatgan bo‘lib, O‘zini nazarda tutgan.

22:16 *Hirod tarafdorlari* — Buyuk Hirodning avlodlari hukmronligini qo‘llab–quvvatlagan yahudiylarning bir guruhi. Buyuk Hirod va uning o‘g‘li Hirod Antipas (14:1 ga qarang) hokimiyati cheklangan bo‘lib, faqat Rim hukumati ruxsati bilan ish yuritardi. Farziylar Rim hukumatiga qattiq qarshilik ko‘rsatar, ammo Hirod tarafdorlari Rim hukmronligini qo‘llab–quvvatlar edilar.

22:17 *Qaysar* — barcha Rim imperatorlariga berilgan unvon. Bu o‘rinda Qaysar Tiberiyga ishora qilingan. U milodiy 14-37 yillarda hukmronlik qilgan.

22:17 *…Qaysarga soliq to‘lashimiz…* — yahudiylar Rim bosqinchilaridan g‘oyat nafratlanganlari uchun, ularga soliq to‘lashni aslo istamas edilar. Biroq soliq to‘lamaslik katta muammolarni keltirib chiqarar edi.

22:19 *dinor* — Rim kumush tangasi. Bir dinor mardikorning bir kunlik ish haqi edi.

22:24 *...Muso aytgan ediki...* — Qonunlar 25:5-6 ga qarang.

22:29 *Muqaddas bitiklar* — odatda Eski Ahd kitoblari to‘plami shu nom bilan ataladi.

22:32 Chiqish 3:6 ga qarang.

22:37 Qonunlar 6:5 ga qarang.

22:39 Levilar 19:18 ga qarang.

22:40 *Butun Tavrot va payg‘ambarlarning hamma bitiklari* — odatda Eski Ahd kitoblari to‘plami shu nom bilan ataladi (5:17 izohiga qarang).

22:42 *Dovudning O‘g‘li* — 9:27 izohiga qarang.

22:44 *Mening o‘ng tomonim* — o‘ng tomon muruvvat va baraka o‘rni deb hisoblangan.

22:44 Zabur 109:1 ga va o‘sha oyatning birinchi izohiga qarang.

23:5 *Peshanalariga taqqan nishonalari...kiyimlarining popuklari...* — bu nishona va popuklarni erkaklar o‘zlarining Xudoga bag‘ishlanganlarini ko‘rsatish uchun taqib yurardilar. Nishona odatda teridan tikilgan kichkina quti bo‘lib, uning ichida Tavrotdan yozib olingan muhim oyatlar bor edi. Xudo O‘z xalqiga, Mening amrlarimni yodda tutib, ularga rioya qilinglar, amrlarimni farzandlaringizga o‘rgatinglar, deb popuklar osib yurishni va nishonalar taqib yurishni buyurgan edi (Sahroda 15:37-40, Qonunlar 6:8, 11:18 ga qarang). Iso Masih bu amrga itoat etishni emas, balki inson yuragidagi mag‘rurlikni, gunohga moyil bo‘lgan o‘y–xayollarni ayb deb bilardi.

23:13-14 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida quyidagi so‘zlar 14–oyatni tashkil etib, qo‘shimcha qilingan: *Holingizga voy, ey tafsirchilar va farziylar! Sizlar ikkiyuzlamachisizlar! Axir, sizlar bevalarning uy–joylarini tortib olasizlar, xo‘ja ko‘rsinga uzoq duo o‘qiysizlar. Shuning uchun nihoyatda qattiq jazoga mubtalo bo‘lasizlar.*

23:23 *ushr* — har qanday daromadning o‘ndan bir qismi. Levilar 27:30-33, Qonunlar 14:22-29, 26:12-13 ga qarang.

23:24 *...ichimligingizdan chivinni suzib olasizlar...* — harom bo‘lib qolmaslik uchun ular hatto eng kichkina hasharotni suzib olardilar (Levilar 11:20-23 ga qarang), ammo harom bo‘lgan tuyani butunligicha yutib yuborardilar (Levilar 11:4 ga qarang).

23:27 *...ohaklangan qabrlarga o‘xshaysizlar...* — yahudiylar qabrlarni harom deb bilishardi, shuning uchun qabrga tegib ketgan odam ham harom bo‘lardi (Sahroda 19:16 ga qarang). Farziylar tashqi tozalik, diniy poklikka rioya qilib, haqiqiy solihlikka e’tiborsiz bo‘lganlari uchun Xudoning nazarida nopok edilar. Ularning urf–odatlari nafaqat o‘zlarini, balki ularning urf–odatlariga rioya qilgan hamma odamni bulg‘ar edi.

23:35 *...Hobil...Zakariyo...* — Eski Ahdda bayon qilingan voqealarga ko‘ra, birinchi o‘ldirilgan inson — Hobil, oxirgi o‘ldirilgan inson esa Zakariyo edi (Ibtido 4:8, 2 Solnomalar 24:20-22 ga qarang).

23:39 Zabur 117:26 ga qarang.

24:2 *...bular vayron bo‘ladi* — milodiy 70 yilda Tit boshchiligida Rim qo‘shini Quddusni va u yerdagi Ma’badni butunlay vayron qilgan.

24:3 *Zaytun tog‘i* — 21:1 izohiga qarang.

24:15 *makruh bir narsa* — Doniyor 9:27 ga va o‘sha oyatning oxirgi izohiga qarang.

Yana Doniyor 11:31, 12:11 ga qarang.

24:17 *Tomning ustida bo‘lganlar* — u zamonlarda uylarning tomi tekis bo‘lib, odamlar tomga chiqib dam olishardi.

24:20 *...Shabbat kuniga to‘g‘ri kelmasligi uchun...* — o‘sha davrda yahudiylarning Shabbat kuni haqidagi qonunni sharhlashlari bo‘yicha, Shabbat kunida faqatgina taxminan bir chaqirim joygacha yurish mumkin edi. Agar qochish Shabbat kuniga to‘g‘ri kelib qolsa, ularning ahvoli yanada qiyinlashardi. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi SHABBAT KUNI iborasiga qarang.

24:28 *Kalxatlar...shu singari, hammaga ayon bo‘ladi* — yunoncha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *Murda qayerda bo‘lsa, kalxatlar ham o‘sha yerda to‘planadi*.

24:29 Ishayo 13:10, 34:4 ga qarang.

24:30 *Inson O‘g‘li...bulutlarda keladi* — Doniyor 7:13-14 ga qarang.

24:33 *o‘sha vaqt* — yoki *Inson O‘g‘li*.

24:36 *O‘g‘il ham...* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida bu so‘zlar yo‘q.

24:37 *Nuh davrida* — Ibtido 6:5-7:23 ga qarang.

25:15 *...besh ming tilla...ikki ming tilla...ming tilla...* — yunoncha matnda *...besh talant...ikki talant...bir talant...* (shu bobning 16-28–oyatlarida ham bor). Bir talantning qiymati mardikorning o‘n besh yillik ish haqidan ham ko‘proq edi.

25:30 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida quyidagi so‘zlar oyatga qo‘shimcha qilingan: *Bularni aytib, Iso xitob qilib dedi: “Kimning eshitar qulog‘i bo‘lsa, eshitsin!”*

26:2 *Fisih ziyofati* — Fisih ziyofatiga va undan keyin yetti kun davomida nishonlanadigan Xamirturushsiz non bayramiga ishora (Mark 14:1, Luqo 22:1 ga qarang). Bu bayramlar Isroil xalqining Misrdagi qullikdan ozod bo‘lishi munosabati bilan nishonlanar edi (Chiqish 12:1-42, 13:3-10 ga qarang).

26:6 *Baytaniya* — 21:17 izohiga qarang.

26:6 *teri kasalligi* — 8:2 ning birinchi izohiga qarang.

26:6 *ilgari teri kasalligiga chalingan Shimo‘n* — bu odam haqida faqatgina shu oyatda va Mark 14:3 da aytib o‘tilgan. Bu Shimo‘n Isodan shifo topgani bilan tanilgan bo‘lishi mumkin.

26:7 *ganch* — bu o‘rinda ishlatilgan yunoncha so‘z naqqoshlikda qo‘llaniladigan oqish yoki sarg‘ish rangli toshni bildiradi. Odatda bu toshdan yasalgan idishlarda atir moyni uzoq vaqt davomida saqlasa bo‘lardi.

26:12 *Ayol...Meni dafnga tayyorladi* — yahudiylarning urf–odatiga ko‘ra jasad dafn qilinishidan oldin unga xushbo‘y hidli ziravorlar va moylar surtilar edi (Luqo 23:55-56, Yuhanno 19:38-40 ga qarang). Ayol qilgan ishining ma’nosini o‘zi tushunganmi yoki yo‘qmi, aniq emas, ammo Iso aytadiki, uning bu harakati Isoning o‘limi yaqinlashib qolganini bildirardi (yana shu bobning 2–oyatiga qarang).

26:17 *Xamirturushsiz non bayrami* — shu bobning 2–oyati izohiga qarang.

26:28 *ahd* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *yangi ahd*. Iso Masih

butun odamzodning gunohini O‘z bo‘yniga olib, xochda o‘ldi. Shu orqali yangi ahdni kuchga kiritdi (Ibroniylar 8:6-13, 9:11-17 ga qarang). To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi AHD so‘ziga qarang.

26:30 *Zaytun tog‘i* — 21:1 izohiga qarang.

26:31 Zakariyo 13:7 ga qarang.

26:36 *Getsemaniya* — Zaytun tog‘ining g‘arbiy yon bag‘ridagi bog‘.

26:37 *Zabadiyoning ikki o‘g‘li* — ya’ni Yoqub va Yuhanno.

26:39 *bu azob kosasi* — yunoncha matnda *kosa*. 20:22 ning birinchi izohiga qarang.

26:41 *…vasvasaga tushib qolmaylik, deb ibodat qilinglar* — Iso O‘z shogirdlarini hademay sinov payti boshlanishi haqida ogohlantiryapti (shu bobning 31-35–oyatlariga qarang). O‘sha paytda ular vasvasaga tushib, Iso Masihdan yuz o‘girishlari mumkin edi.

26:53 *o‘n minglab* — yunoncha matnda *o‘n ikki legiondan ko‘proq*, ma’nosi *minglar*. Bu yunoncha so‘z Rimliklarning harbiy terminidan olingan bo‘lib, 6000 askardan iborat bo‘lgan bo‘linma ma’nosini ifodalaydi.

26:54 *Muqaddas bitiklar* — odatda Eski Ahd kitoblari to‘plami shu nom bilan ataladi.

26:59 *Oliy kengash* — yahudiylarning siyosiy va diniy kengashi. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi OLIY KENGASH iborasiga qarang.

26:59 *…Isoni o‘limga mahkum qilish uchun Unga qarshi soxta dalillar izlar edilar* — Tavrot qonuniga ko‘ra, birortasini o‘limga mahkum qilish uchun, jinoyatni isbotlaydigan kamida ikkita guvoh bo‘lishi kerak edi (Qonunlar 17:6 ga qarang).

26:61 *Bu Odam…degan* — Yuhanno 2:18-22 ga qarang.

26:63 *Xudoning O‘g‘li* — Iso Masihning unvoni. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi XUDONING O‘G‘LI iborasiga qarang.

26:64 *Qodir Xudoning o‘ng tomonida o‘tirgani* — Zabur 109:1 ga qarang. O‘ng tomon muruvvat va baraka o‘rni deb hisoblangan.

26:64 *…Inson O‘g‘lini…osmon bulutlarida kelayotganini ko‘rasizlar* — Doniyor 7:13 ga qarang.

26:65 *…o‘z kiyimlarini yirtib…* — oliy ruhoniy bu harakati bilan Isoning aytgan so‘zlaridan darg‘azab bo‘lganini ko‘rsatdi.

26:73 *shevang* — Jalilaliklarning shevasi o‘zgacha bo‘lib, Yahudiyaliklar ularga past nazar bilan qarar edilar.

27:2 *hokim Pilat* — Rim hukumati tomonidan Yahudiya viloyatiga tayinlangan hokim.

27:7 *kulolning dalasi* — kulolga tegishli bo‘lgan dalaga ishora bo‘lishi mumkin. Ammo bu ibora kulollar loy oladigan joyga yoki kulollar ishlaydigan joyga yoki eski, singan sopol idishlar tashlanadigan joyga nisbatan ham ishlatilgan bo‘lishi mumkin.

27:9-10 *Yeremiyo payg‘ambarning bashorati* — mazkur oyatlardagi qo‘shtirnoqqa olingan parchada Zakariyo 11:12-13 da bayon qilingan g‘oyalar va Yeremiyo payg‘ambarning hayotida sodir bo‘lgan voqealar birga qo‘shilgan (Yeremiyo 19:1-13 ga qarang).

27:15 *Fisih bayrami* — 26:2 izohiga qarang.

27:16 *Yoshua* — yunoncha matnda *Iisus*, bu ism ibroniycha *Yoshua* ismidan olingan. Shu bobning 17–oyatida ham bor.

27:16 *Yoshua Barabbas* — yunoncha matndan. Ba'zi yunon qo'lyozmalarida *Barabbas*. Shu bobning 17–oyatida ham bor.

27:24 *Bu Odam* — yunoncha matndan. Ba'zi yunon qo'lyozmalarida *bu solih Odam*.

27:32 *Kirineya* — bu shahar O'rta yer dengizi bo'yida, hozirgi Liviya mamlakatining hududida joylashgan edi.

27:32 *xoch* — bu o'rinda xochning ko'ndalang yog'ochiga ishora qilingan. O'limga mahkum qilingan inson bu yog'ochni hukm ijro qilinadigan joygacha o'zi ko'tarib borishi kerak edi. Bundan oldin Isoni ayovsiz qamchilashgani uchun (shu bobning 26–oyatiga va Mark 15:15, Yuhanno 19:1 ga qarang), U shu qadar holdan toygan ediki, ehtimol, xochni O'zi ko'tarishga madori qolmagan bo'lsa kerak.

27:34 *achchiq o't* — xochga mixlanadigan odamlarning azobini oz bo'lsa–da, kamaytirish uchun beriladigan dori bo'lishi mumkin.

27:35 *Kiyimlari uchun qur'a tashlab, o'zaro bo'lishib olishdi* — Zabur 21:19 ga qarang.

27:39 *...boshlarini chayqab, Isoni haqoratlashardi* — Zabur 21:8 ga qarang.

27:40 *Xudoning O'g'li* — Iso Masihning unvoni. To'liqroq ma'lumotga ega bo'lish uchun lug'atdagi XUDONING O'G'LI iborasiga qarang.

27:43 *U Xudoga ishonardi...hozir Uni qutqarsin* — Zabur 21:9 ga qarang.

27:45 *Tush...soat uch...* — yunoncha matnda *Oltinchi soat...to'qqizinchi soat...*, yahudiylarning urf–odatiga ko'ra, kunning bu paytlari o'sha soatlar bilan belgilanar edi.

27:46 *Eli, Eli, lamo shavaqtani?* — *Eli* — ibroniycha so'z, *lamo shavaqtani* oramiycha iboradir.

27:46 Zabur 21:2 ga qarang.

27:47 *Ilyos* — ibroniy tilida *Eliyah*. Bu ism oldingi oyatdagi *Eli* so'ziga ohangdosh.

27:48 *arzon sharob* — bu o'rinda ishlatilgan yunoncha so'z avom xalq kunda ichadigan nordon sharobga ishora qiladi. Bu sharob Rim askarlari uchun o'sha yerga olib kelingan bo'lishi mumkin.

27:49 *...Ilyos kelib...* — 16:14 izohiga qarang.

27:51 *Ma'baddagi parda* — shoh Hirod qayta qurgan Ma'badda ikkita parda bor edi. Pardaning biri Ma'badning kiraverishida osilgan, ikkinchisi esa Eng muqaddas xonani Muqaddas xonadan ajratib turar edi. Bu oyatda Eng muqaddas xonani Muqaddas xonadan ajratib turadigan parda nazarda tutilgan. Ma'baddagi pardaning yirtilishi Iso tufayli odamlarga Xudoning huzuriga yo'l ochilganidan dalolat beradi (Yuhanno 4:19-24, Ibroniylar 9:1-10, 10:19-22 ga qarang).

27:56 *Magdala* — Jalila ko'lining g'arbiy qirg'og'idagi qishloq.

27:56 *Zabadiyo o'g'illari* — ya'ni Yoqub va Yuhanno.

27:57 *Oqshom tushayotgan paytda...* — yahudiylarning urf–odatiga ko'ra, yangi kun quyosh botgandan keyin boshlanar edi. Juma kuni tugayotgani uchun Yusuf jasadni Shabbat kuni boshlanmasidan oldin qabrga qo'ymoqchi bo'lgan (Luqo 23:50-56 ga

qarang).

27:57 *Arimateya* — Quddusdan 35 kilometr shimoli–g‘arbda joylashgan shahar.

27:61 *boshqa Maryam* — shu bobning 56–oyatiga qarang.

27:64 *birinchisi* — ular Isoning Masih ekanligiga ishonmas edilar, bu haqdagi gaplarni yolg‘on, deb hisoblardilar.

28:1 *Magdala* — Jalila ko‘lining g‘arbiy qirg‘og‘idagi qishloq.

28:1 *boshqa Maryam* — 27:56 ga qarang.

28:14 *hokim* — ya’ni Pilat (27:2 izohiga qarang).

28:15 *bugungi kungacha* — shu kitob yozilgan vaqtga ishora.

28:20 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida quyidagi so‘z oyatga qo‘shimcha qilingan: *omin*.

MARK

BAYON ETGAN MUQADDAS XUSHXABAR

Kirish

Mazkur kitob Yangi Ahd tarkibidagi to‘rtta Xushxabarning ikkinchisidir. Mark kitobi Xushxabar kitoblari orasida eng qisqasi bo‘lib, Isoning hayoti va faoliyati to‘g‘risida hikoya qiladi. Bu kitob muallifi Markdir. U havoriy Butrusning va’zlari va ta’limotiga asoslangan holda, Isoning safarlari va ko‘rsatgan aql bovar qilmas mo‘jizalari haqida bayon qiladi. Kitob Isoning xochdagi o‘limi va tirilishi haqidagi voqealar bilan yakunlanadi.

Mark Isoning qudrati va hokimiyatiga alohida urg‘u beradi. U Isoni Xudoning O‘g‘li* deb ta’kidlab, Iso ulug‘ Ustoz, tengi yo‘q Shifokor ekanini, hatto shayton, jinlar va o‘lim ham Unga bo‘ysunishini hikoya qiladi. Iso tabiat hodisalari, gunoh, diniy udumlar va Ma’baddagi tartib ustidan Hukmron ekanini muallif ko‘rsatadi. Iso odamlarga shifo bergani haqida Mark takror–takror bayon qiladi, bu mo‘jizalarning hammasini Iso Xudoning qudrati bilan qilganini muallif ta’kidlaydi.

Din arboblari Isoning ta’limotini qabul qilishmaydi. Bu esa Iso va ularning orasida ziddiyat tug‘diradi (2:2-3:6). Oqibatda ular Isoni o‘ldirish payiga tushadilar (11:18).

Bu kitob Isoning shogirdlarini va olomonni hayratga solgan mo‘jizalarga boy bo‘lsa–da, mazkur Xushxabarga ko‘ra, Isoning eng qudratli ishi Uning xochda tortgan azobi va o‘limidir. Buni anglagan birinchi odam Rim askari bo‘ladi, u Isoning xochda o‘lganini ko‘rib: “Bu Odam haqiqatan ham Xudoning O‘g‘li ekan!” deb tan oladi (15:39).

To‘rtta Xushxabar orasida Mark bayon etgan Xushxabar birinchi bo‘lib yozilgan, degan fikr keng tarqalgan. Mazkur Xushxabardagi ko‘plab oramiycha so‘zlar va yahudiycha odatlarning izohi shunday fikrga olib keladi: Mark bu kitobini g‘ayriyahudiy xalqlardan bo‘lgan masihiylar uchun yozgan. Muallif Iso to‘g‘risida hikoya qilganda, kitobxonni Isoning qudratiga ishontirishga harakat qiladi. Zotan, Uning qudrati odamlarni xastaliklardan, jinlardan va o‘limdan xalos qila oladi. Shuningdek, Mark imondagi yangi hayot yengil emasligini eslatib qo‘yishni xohlaydi. Imonlilar Isoga ergashib, boshqalarga xizmat qilishlari va Iso singari azob–uqubat tortishga tayyor bo‘lishlari kerakligini aytadi.

1–BOB

Yahyo cho‘mdiruvchining va’zi

1 Xudoning O‘g‘li* Iso Masih to‘g‘risidagi Xushxabar shunday boshlanadi. 2 Ishayo
payg‘ambarning kitobida yozilganki:

“Mana, Sendan oldin Men O‘z elchimni yuboryapman,
U Sen uchun yo‘lni hozirlaydi*.
3 Cho‘lda bir ovoz yangramoqda:
«Egamizga yo‘l hozirlang,

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

Unga to‘g‘ri yo‘l oching!»”*

4 Darvoqe, Yahyo cho‘mdiruvchi cho‘lda* odamlarga: “Gunohlaringizdan tavba qilib,
suvga cho‘minglar, shunda Xudo gunohlaringizni kechiradi”, deb va’z qila boshladi*.
5 Quddus aholisi va Yahudiya o‘lkasining qolgan hamma joylaridan kelgan odamlar
Yahyoning oldiga borishardi. Ular gunohlarini e’tirof etishar, Yahyo ularni Iordan
daryosida cho‘mdirar edi.
6 Yahyoning kiyimlari tuya junidan to‘qilgan bo‘lib, beliga charm kamar* bog‘lagan
edi. U chigirtka va yovvoyi asal yerdi. 7 U xalqqa shunday deb e’lon qilardi: “Mendan
ham qudratliroq bo‘lgan bir Zot ortimdan kelmoqda. Men engashib Uning choriq iplarini
yechishga ham arzimayman. 8 Men sizlarni suvga cho‘mdiryapman, U esa sizlarni
Muqaddas Ruhga cho‘mdiradi.”

Iso suvga cho‘mdiriladi

9 O‘sha kunlari Iso Jalila hududining Nosira shahridan Yahyo oldiga keldi. Yahyo Uni
Iordan daryosida cho‘mdirdi. 10 Suvdan chiqishi bilanoq Iso osmonning ochilib ketganini
va Muqaddas Ruh Uning ustiga kaptarday tushib kelganini ko‘rdi. 11 Osmondan esa: “Sen
Mening sevikli O‘g‘limsan*, Sendan nihoyatda mamnunman*” degan ovoz eshitildi.

Iso vasvasaga solinadi

12 Muqaddas Ruh Isoni darhol sahroga boshlab ketdi. 13 Iso sahroda qirq kun bo‘lib,
shayton tomonidan vasvasaga solindi. Iso yovvoyi hayvonlar orasida yashab, farishtalar
Unga xizmat qilishardi.
14 Yahyo hibsga olingandan keyin*, Iso Jalilaga borib, Xudoning Xushxabarini va’z
qildi: 15 “Vaqt–soati yetdi. Xudoning Shohligi* yaqinlashdi! Tavba qilinglar, Xushxabarga
ishoninglar!”

Isoning dastlabki shogirdlari

16 Iso Jalila ko‘li bo‘ylab o‘tayotib, Shimo‘n* va uning ukasi Endrusni ko‘rib qoldi. Ular
baliqchi bo‘lib, ko‘lga to‘r tashlayotgan edilar. 17 Iso ularga dedi: “Ortimdan yuringlar.
Men sizlarga odamlarni ovlashni o‘rgataman.” 18 Ular o‘sha zahotiyoq to‘rlarini tashlab,
Isoga ergashdilar.
19 Iso bir oz nari yurgach, Zabadiyoning o‘g‘illari Yoqub va Yuhannoni ko‘rib qoldi.
Ular qayiqda to‘rlarini yamab o‘tirishgan edi. 20 Iso shu onda ularni ham chaqirdi. Ular
otalari Zabadiyoni va yollanma ishchilarni qayiqda qoldirib, Isoga ergashdilar.

Jinga chalingan odam

21 Ular Kafarnahum shahriga kirib borishdi. Shabbat kuni Iso sinagogaga kirib, ta’lim
bera boshladi. 22 Xaloyiq Isoning ta’limotini eshitib, hayratda qoldi, chunki U odamlarga
Tavrot tafsirchilariday* emas, balki hokimiyat egasi kabi ta’lim berar edi*.
23 O‘sha sinagogada yovuz ruhga chalingan bir odam bor edi. U to‘satdan qichqirib
yubordi:
24 — Ey Nosiralik Iso! Bizni tinch qo‘y! Sen bizni halok qilgani keldingmi? Sening
kimligingni bilaman: Sen Xudoning Azizisan!
25 Biroq Iso jinga do‘q urib:
— Jim bo‘l! Undan chiqib ket! — dedi.
26 Yovuz ruh u odamni qattiq siltadi, ovozi boricha baqirib, uning ichidan chiqib

ketdi. 27 Odamlar hayratlanib, bir–birlaridan so‘ray boshladilar:

— Bu nimasi? Hokimiyatga ega bo‘lgan yangi ta’limot–ku! U yovuz ruhlarga buyruq beradi, yovuz ruhlar esa Unga bo‘ysunadi–ya!

28 Shunday qilib, Isoning shuhrati butun Jalila hududi bo‘ylab yoyila boshladi.

Iso ko‘p odamlarni sog‘aytiradi

29 Iso, Shimo‘n, Endrus, Yoqub, Yuhanno sinagogadan chiqib, to‘g‘ri Shimo‘n va Endrusning uyiga bordilar. 30 Shimo‘nning qaynanasi isitmalab, to‘shakda yotgan edi. Iso kelishi bilanoq Unga bu haqda aytishdi. 31 Iso ayolning yoniga bordi, qo‘lidan tutib, o‘tirg‘izib qo‘ydi. Shunda ayolning isitmasi tushdi, u mehmonlarga xizmat qila boshladi.

32 Quyosh botib kech kirgan paytda*, odamlar xastalarni va jinga chalinganlarni Isoning oldiga olib kelishdi. 33 Butun shahar aholisi eshik oldiga yig‘ildi. 34 Iso turli dardu illatlardan qiynalgan ko‘p odamlarni sog‘aytirdi. Ko‘plarning ichidan jinlarni quvib chiqardi. Jinlarning gapirishiga ijozat bermasdi, chunki jinlar Isoning kimligini bilishardi.

Iso Jaliladagi sinagogalarda va’z qiladi

35 Ertasi kuni saharda, tong yorishmasdan oldin, Iso o‘rnidan turib, uydan chiqib ketdi. Kimsasiz joyga borib, ibodat qildi. 36 Shimo‘n va boshqalar Isoni qidirib ketdilar. 37 Isoni topib:

— Hamma Sizni izlab yuribdi! — dedilar. 38 Iso ularga:

— Yaqin atrofdagi qishloqlarga boraylik, Men u yerlarda ham voizlik qilay, chunki Men ana shu maqsadda kelganman, — dedi.

39 Shunday qilib, Iso butun Jalila hududini kezib, u yerdagi sinagogalarda voizlik qilar va odamlarning ichidan jinlarni quvib chiqarar edi.

Teri kasalligiga chalingan odamni Iso sog‘aytiradi

40 Teri kasalligiga* chalingan bir odam Isoning oldiga keldi. U tiz cho‘kib, yalindi:

— Bilaman, agar istasangiz, meni bu kasallikdan poklay olasiz.

41 Isoning unga rahmi kelib, qo‘lini uzatdi va unga tekkizib:

— Istayman, pok bo‘l! — dedi.

42 Shu zahoti o‘sha odam kasalligidan forig‘ bo‘lib, poklandi. 43-44 Iso uni qat’iy ogohlantirib dedi:

— Menga qara! Bu to‘g‘rida birovga og‘iz ocha ko‘rma. Borib, o‘zingni ruhoniyga* ko‘rsat. Poklanganingni hammaga isbot qilish uchun* Muso amr qilgan qurbonliklarni keltir*.

Shu so‘zlar bilan Iso uni darhol jo‘natib yubordi.

45 O‘sha odam esa ketayotib, ro‘y bergan hodisani bemalol har yoqqa yoya boshladi. Shu bois Iso biror shaharga ochiqchasiga bora olmay qoldi. Aksincha, shahardan tashqarida, kimsasiz joylarda yashaydigan bo‘ldi. Shunga qaramay, xaloyiq har tomondan Uning oldiga kelar edi.

2–BOB

Iso sholni sog‘aytiradi

1 Bir necha kundan keyin Iso yana Kafarnahum shahriga keldi. Uning kelgani to‘g‘risidagi xabar tezda shaharga tarqaldi. 2 Shu qadar ko‘p odam yig‘ildiki, Iso o‘tirgan

uyning* hatto eshigi oldida ham joy qolmadi. Iso xalqqa Xudoning so‘zini o‘rgatayotgan edi. 3 Shu orada to‘rt kishi bir shol odamni ko‘tarib keldilar. 4 Olomon ko‘pligidan ular sholni Isoning oldiga olib bora olmay, uyning tomidan teshik ochdilar*. Sholni to‘shagi bilan Isoning oldiga tushirdilar.

5 Iso ularning ishonchini ko‘rib, sholga:

— O‘g‘lim, gunohlaring kechirildi, — dedi.

6 Bu yerda ba’zi Tavrot tafsirchilari o‘tirgan edilar. Ular ichlarida shunday deb o‘ylagan edilar: 7 “Nega bu Odam bunday deyapti? Bu kufrlik–ku! Xudodan boshqa hech kim gunohlarni kechira olmaydi!” 8 Iso shu onda ularning o‘y–fikrlarini bilib, dedi:

— Nega bunday narsalarni o‘ylaysizlar? 9 Qaysi biri osonroq? Sholga: “Gunohlaring kechirildi”, deb aytishmi yoki: “O‘rningdan tur, to‘shagingni olgin–da, yur!” deb aytishmi? 10 Inson O‘g‘liga* yer yuzida gunohlarni kechirish hokimiyati berilgan. Hozir shuni bilib olasizlar.

U shunday dedi–yu, sholga:

11 — Senga aytaman: o‘rningdan tur! To‘shagingni olib, uyingga bor! — deb buyurdi.

12 Shol odam o‘rnidan turdi, darhol to‘shagini olib, hammaning ko‘zi oldida chiqib ketdi. Hamma hayratga tushib: “Bunaqasini hech qachon ko‘rmagan edik”, deb Xudoni ulug‘lar edilar.

Iso Levini chaqiradi

13 Iso yana Jalila ko‘li bo‘yiga chiqdi. Tumonat xaloyiq Uning oldiga to‘plandi. Iso ularga ta’lim berdi.

14 Iso ko‘l bo‘ylab yurarkan, soliq yig‘adigan joyda o‘tirgan Xalfey o‘g‘li Levini* ko‘rib qoldi. Iso unga:

— Ortimdan yur! — dedi. Levi o‘rnidan turib, Isoga ergashdi.

15 Bir ozdan keyin Iso Levining uyida mehmon bo‘ldi. Isoga ergashgan ko‘p soliqchilar* va gunohkorlar ham Uning shogirdlari qatorida dasturxon atrofida o‘tirardilar. 16 Iso gunohkorlar va soliqchilar bilan birga ovqatlanib o‘tirganini farziy* mazhabidan bo‘lgan ba’zi Tavrot tafsirchilari ko‘rib, Uning shogirdlariga:

— Bu qanday gap? U soliqchilaru gunohkorlar bilan birga ovqatlanib o‘tiribdi–ku! — deyishdi. 17 Iso buni eshitib, shunday javob berdi:

— Men solihlarni emas, gunohkorlarni tavbaga chaqirgani kelganman. Axir, sog‘lar emas, xastalar tabibga muhtojdir.

Ro‘za tutish haqida savol

18 Yahyoning ham, farziylarning ham shogirdlari ro‘za tutishar edi. Ba’zi odamlar Isoning yoniga kelib:

— Nega Yahyoning shogirdlari va farziylarning shogirdlari ro‘za tutadi–yu, Sizning shogirdlaringiz tutmaydi? — deb so‘rashdi. 19 Iso ularga dedi:

— To‘yda mehmonlar ro‘za tuta oladilarmi? Albatta, yo‘q! Kuyov ular bilan birga bo‘lganda, ular ro‘za tuta olmaydilar. 20 Biroq ular kuyovdan judo bo‘ladigan kunlar keladi, ana o‘shanda ro‘za tutadilar. 21 Hech kim eski kiyimga yangi matodan yamoq solmaydi. Aks holda, yangi yamoq eski kiyimni battar yirtib yuboradi. 22 Shuningdek, hech kim yangi sharobni eski meshga quymaydi. Chunki yangi sharob meshni yorib yuboradi*, sharob ham, mesh ham isrof bo‘ladi. Aksincha, yangi sharobni yangi meshga quymoq darkor.

Shabbat kuniga rioya qilish haqida

23 Shabbat kunlarining birida Iso bug‘doyzordan o‘tib ketayotgan edi. Uning
shogirdlari yo‘l–yo‘lakay boshoqlarni uza boshladilar*. 24 Buni ko‘rgan farziylar Isoga:
— Qara, nega ular Shabbat kuni qonunga xilof ish* qilyaptilar? — deyishdi. 25 Iso
ularga dedi:
— Dovud hamrohlari bilan och qolib, ovqatga muhtoj bo‘lganda nimalar qilganini*
nahotki sizlar hech o‘qimagan bo‘lsangiz?! 26 U oliy ruhoniy Abuatar* zamonida
Xudoning uyiga kirib, muqaddas nonlarni* yegan. Hatto hamrohlariga ham bergan.
Qonunga muvofiq esa bunday nonlarni faqat ruhoniylar yeyishga haqli edilar–ku!
27 Keyin Iso davom etdi:
— Inson Shabbat kuni uchun emas, balki Shabbat kuni inson uchun yaratilgan. 28 Shu
bois, Inson O‘g‘li Shabbat kunining ham Hokimidir.

3–BOB

Qo‘li shol odamni Iso sog‘aytiradi

1 Boshqa bir kuni Iso sinagogaga kirdi. U yerda qo‘li shol bir odam bor edi. 2 Isoni
ayblamoqchi bo‘lgan ba’zi odamlar*: “Iso Shabbat kuni ham bu odamga shifo
berarmikan”, deb Uni kuzatib turardilar.
3 Qo‘li shol odamga Iso:
— Oldinga chiq! — dedi. 4 So‘ng xaloyiqdan so‘radi:
— Qonunga muvofiq Shabbat kuni yaxshilik qilish kerakmi yoki yomonlikmi? Jonni
xalos qilish kerakmi yoki halok qilishmi?
Ular esa indamay turaverdilar.
5 Iso odamlarning bunday bag‘ri toshligidan ranjib, atrofga g‘azab bilan qaradi.
So‘ngra o‘sha odamga:
— Qo‘lingni uzat! — dedi.
U odam qo‘lini uzatishi bilanoq, qo‘li soppa–sog‘ bo‘lib qoldi. 6 Farziylar esa darrov
tashqariga chiqib: “Isoni qanday qilib o‘ldirsak ekan?” deb Hirod tarafdorlari* bilan til
biriktirishdi.

Ko‘l bo‘yidagi olomon

7-8 Iso shogirdlari bilan Jalila ko‘li tomonga ketdi. Unga bir talay olomon ergashdi.
Uning qilgan ishlari to‘g‘risida eshitgan bu odamlar Jaliladan, Yahudiyadan, Quddusdan,
Idumeya hududidan, Iordan daryosining sharqidagi yerlardan, shuningdek, Tir va Sidon
atrofidagi hududlardan kelgan edilar. 9 Odam ko‘pligidan oyoq ostida qolib ketmay deb,
Iso shogirdlariga qayiq tayyorlab qo‘yishni buyurdi. 10 Iso ko‘pchilikka shifo bergani
uchun, hamma xastalar Isoga qo‘llarini tekkizmoqchi bo‘lib, U tomon yopirilishardi.
11 Yovuz ruhga chalingan odamlar esa Isoni ko‘rgan zahoti, Uning oyoqlariga yiqilib:
“Sen Xudoning O‘g‘lisan*”, — deb baqirib yuborishardi. 12 Ammo Iso: “Mening
kimligimni aytmanglar!” deb ularga qat’iy buyurardi.

Iso o‘n ikki havoriyni tanlaydi

13 Shundan so‘ng Iso toqqa chiqib, O‘zi xohlagan odamlarni yoniga chaqirdi. Ular
kelgach, 14 Iso o‘n ikki odamni tanlab olib, ularga havoriylar deb nom berdi*. So‘ngra
dedi:

— Men bilan birga bo‘lishlaringiz uchun sizlarni tanlab oldim. Men sizlarni va’z aytishga yuboraman. 15 Sizlarga jinlarni haydash* hokimiyatini beraman.

16 Iso tanlab olgan o‘n ikki havoriy quyidagilardir: Shimo‘n (Iso unga Butrus deb ism berdi), 17 Zabadiyo o‘g‘illari Yoqub va Yuhanno (Iso ularga Baniragash, ya’ni “momaqaldiroq o‘g‘illari” deb nom berdi), 18 yana Endrus, Filip, Bartolomey, Matto, To‘ma, Xalfey o‘g‘li Yoqub, Taddeyus*, vatanparvar* Shimo‘n 19 va Isoga xiyonat qilgan Yahudo Ishqariyot.

Iso va shayton

20 Shundan so‘ng Iso uyga* ketdi. Ammo yana ko‘p xaloyiq to‘plangani uchun Iso va shogirdlarining hatto non yeyishga ham vaqtlari bo‘lmadi. 21 Isoning qilgan ishlari to‘g‘risida oila a’zolari* eshitib: “Iso aqldan ozib qolibdi”, deb Uni olib ketgani keldilar.
22 Quddusdan kelgan Tavrot tafsirchilari esa:

— Uning ichiga Baalzabul kirib olgan. U Baalzabulning — ins–jinslar hukmdorining* kuchi bilan jinlarni quvib chiqaryapti, — deyishdi.

23 Shunda Iso ularni yoniga chaqirib, masal bilan so‘zlay boshladi:

— Qanday qilib shayton shaytonni quvib chiqara oladi?! 24 Agar bir shohlik nizo tufayli o‘z ichidan bo‘linib ketsa, bunday shohlik xarob bo‘ladi. 25 Agar bir xonadon nizo tufayli o‘z ichidan bo‘linib ketsa, u xonadon barbod bo‘ladi. 26 Bordi–yu, shaytonning shohligi o‘z–o‘ziga qarshi chiqib, bo‘linib ketsa, u barbod bo‘lib, kuni bitadi. 27 Hech kim kuchli odamning uyiga bostirib kirib, uning mol–mulkini talon–taroj qilib olib keta olmaydi. Uyning egasini o‘g‘ri bog‘lab qo‘ysagina, uyini talon–taroj qila oladi. 28 Sizlarga chinini aytayin: odamlarning qilgan gunohlari, aytgan har qanday kufrliklari kechiriladi.
29 Ammo kim Muqaddas Ruhga kufrlik qilsa*, hech qachon kechirilmaydi, chunki bu abadiy gunohdir.

30 Iso bu so‘zni, “Uni yovuz ruh chalgan” deganlari sababli aytdi.

Isoning onasi va ukalari

31 Isoning onasi bilan ukalari kelib qolishdi. Ular Isoni chaqirib kelish uchun odam yuborib, o‘zlari uyning tashqarisida kutib turishdi. 32 Isoning atrofida olomon o‘tirgan edi. Ular Isoga:

— Ana, onangiz va ukalaringiz* tashqarida Sizni so‘rayaptilar, — deyishdi. 33 Iso ularga javoban:

— Mening onam va ukalarim kim? — dedi. 34 So‘ngra atrofida o‘tirganlarga nazar solib dedi:

— Mana, Mening onam va ukalarim! 35 Kimda–kim Xudoning irodasini bajo qilsa, u Mening ukam, singlim, onam bo‘ladi.

4–BOB

Urug‘ sepuvchi haqida masal

1 Iso yana ko‘l bo‘yida ta’lim berdi. Uning atrofida shu qadar ko‘p olomon to‘plandiki, U ko‘ldagi qayiqqa tushib o‘tirishga majbur bo‘ldi. Olomon esa ko‘l qirg‘og‘ida turardi.
2 Iso masal orqali xalqqa ta’lim berib, shunday dedi: 3 “Quloq solinglar! Bir dehqon urug‘ sepgani chiqibdi. 4 Urug‘ sepayotganda ba’zi urug‘lar so‘qmoq yo‘l ustiga tushibdi. Qushlar uchib kelib, urug‘larni cho‘qib ketibdi. 5 Ba’zi urug‘lar tuprog‘i kam toshloqqa

tushibdi. Tuproq kam bo‘lgani uchun urug‘lar tez ko‘karib chiqibdi. 6 Biroq quyosh
chiqqach, qovjirab, ildizi bo‘lmagani uchun so‘lib qolibdi. 7 Boshqa urug‘lar tikanlar
orasiga tushibdi. Tikanlar o‘sib, urug‘larni bo‘g‘ib qo‘yibdi, urug‘lar hosil bermabdi.
8 Yana boshqa urug‘lar esa yaxshi tuproqqa tushibdi va unib–o‘sib, o‘ttiz, oltmish,
hattoki yuz barobar ko‘p hosil beribdi.”
9 Keyin Iso yana dedi: “Kimning eshitar qulog‘i bo‘lsa, eshitsin!”

Masallarning maqsadi

10 Iso o‘n ikki shogirdi va boshqa ba’zi odamlar bilan yolg‘iz qolganda, ular Isodan
boyagi masalni tushuntirib berishini so‘radilar. 11 Iso ularga dedi: “Xudo Shohligining
sirini bilish sizlarga berilgan. Tashqaridagilarga esa hamma narsani masallar bilan
gapiraman, 12 toki:

«Ular qarab turib, anglamasinlar,
Tinglab turib, tushunmasinlar.
Aks holda, Xudoga qaytadilar,
Gunohlaridan forig‘ bo‘ladilar.»”*

Urug‘ sepuvchi haqidagi masalning ma’nosi

13 Iso ularga dedi: “Agar bu masalni tushunmagan bo‘lsangiz, boshqa masallarni
qanday tushunasiz?! 14 Urug‘ sepuvchining sepgani — Xudoning kalomidir. 15 Ba’zi
odamlar so‘qmoq yo‘l ustiga tushgan urug‘larga o‘xshaydilar. Ular kalomni eshitadilar,
ammo o‘sha zahoti shayton kelib, ularning ichiga ekilgan kalomni olib ketadi. 16 Boshqa
odamlar toshloq yerga tushgan urug‘larga o‘xshaydilar. Ular kalomni eshitganda, uni
darrov sevinch bilan qabul qiladilar. 17 Lekin ularning ildizi bo‘lmagani uchun uzoqqa
chidamaydilar. Kalom tufayli qayg‘u yoki quvg‘inga duchor bo‘lishsa, darrov
chekinadilar. 18 Boshqa birlari tikanlar orasiga tushgan urug‘larga o‘xshaydilar. Ular
Xudoning kalomini eshitadilar, 19 lekin dunyoning tashvishlari, boylikka o‘chlik va
boshqa havaslar ularning yuraklariga kirib, kalomni bo‘g‘ib qo‘yadi, kalom esa
samarasiz qoladi. 20 Boshqa birlari esa yaxshi tuproqqa tushgan urug‘larga o‘xshaydilar.
Ular kalomni eshitib, qabul qiladilar va o‘ttiz, oltmish, hatto yuz barobar hosil
beradilar.”

Idish ostidagi chiroq

21 Iso ularga yana dedi: “Chiroqni olib kelib, idishning yoki chorpoyaning tagiga
qo‘yadimi?! Aksincha, chiroqpoyaga qo‘yadi. 22 Shu singari, har qanday yashirin narsa
ma’lum bo‘ladi, har qanday sir ochiladi. 23 Kimning eshitar qulog‘i bo‘lsa, eshitsin!”
24 Keyin ularga yana dedi: “Eshitayotganlaringizni qulog‘ingizga quyib oling! Siz
qanday o‘lchov bilan o‘lchasangiz, xuddi shunday o‘lchov bilan sizga ham o‘lchab
beriladi. Sizga yana qo‘shib beriladi. 25 Kimda bor bo‘lsa, unga yana beriladi. Kimda yo‘q
bo‘lsa, bori ham undan tortib olinadi.”

Unib chiqqan urug‘ haqida masal

26 Iso yana shunday dedi: “Xudoning Shohligini shunga qiyoslasa bo‘ladi: dehqon
dalasiga urug‘ ekadi. 27 Kechasi bo‘ldimi, uxlaydi, kunduzi bo‘ldimi, turadi. Ammo urug‘
qanday unib chiqib, o‘sishini u bilmaydi. 28 Yer o‘z–o‘zidan avval poyani, so‘ngra
boshoqni, undan keyin boshoqdagi to‘liq donni yetishtiradi. 29 Hosil pishgach, yig‘im–

terim vaqti keldi, deb o‘sha odam darhol o‘roqni ishga soladi.”

Xantal urug‘i haqida masal

30 Iso yana dedi: “Xudoning Shohligini yana nimaga o‘xshatsak bo‘ladi?! Uni qanday
masal bilan ifodalasak bo‘ladi?! 31 Xudoning Shohligi xantal urug‘iga* o‘xshaydi: u yerga
sepiladigan urug‘larning eng maydasidir. 32 Lekin sepilgandan keyin ko‘karadi va barcha
ko‘katlardan baland bo‘lib o‘sadi. Katta shoxlar chiqaradi, osmondagi qushlar ham uning
panohida uya quradi.”

33 Shunday qilib, Iso xalqning eshitish imkoniyatiga qarab, bu singari, ko‘pgina
masallar orqali Xudoning so‘zini o‘rgatardi. 34 Ularga masalsiz gapirmas edi. Shogirdlari
bilan yolg‘iz qolganda esa, ularga hammasini tushuntirar edi.

Iso bo‘ronni tinchlantiradi

35 O‘sha kuni kechqurun Iso shogirdlariga:

— Ko‘lning narigi tomoniga* o‘taylik, — dedi.

36 Ular olomonni qoldirib, Isoni o‘tirgan qayig‘ida olib ketdilar. Isoning ketidan
boshqa qayiqlar ham suzib ketdi. 37 Shu orada ko‘lda kuchli bo‘ron ko‘tarildi. To‘lqinlar
qayiqni tebratib yubordi, qayiq suvga to‘la boshladi. 38 Iso esa qayiqning quyruq
tomonida yostiqqa bosh qo‘yib, uxlab yotgan edi.

Shogirdlar Isoni uyg‘otib:

— Ustoz! Halok bo‘lyapmiz! Nahotki Sizga baribir bo‘lsa?! — deyishdi. 39 Shunda Iso
turib, shamolga: “Jim bo‘l!” va ko‘lga: “Bas qil!” deb buyurdi. Shu onda shamol tindi,
chuqur sukunat bo‘ldi.

40 Iso shogirdlariga:

— Nega qo‘rqasizlar? Nega haligacha ishonchingiz yo‘q? — dedi. 41 Ular esa
vahimaga tushib, bir–biriga shunday deyishdi:

— Bu Kim bo‘ldi ekan–a? Shamol ham, ko‘l ham Unga bo‘ysunadi–ya!

5–BOB

Jinga chalingan odamni Iso sog‘aytiradi

1 Iso shogirdlari bilan ko‘lning narigi qirg‘og‘idagi* Gerasa* hududiga yetib keldi.
2 Iso qayiqdan tushishi bilanoq, yovuz ruhga chalingan bir odam qabrlar orasidan
yugurib kelib, Uning qarshisidan chiqdi. 3 U odam qabristonda yashardi. Uni hech kim
hatto zanjir bilan ham bog‘lay olmasdi. 4 Ko‘p marotaba uni kishanlaru zanjirlar bilan
bog‘lagan bo‘lsalar–da, ammo u zanjirlarni uzib, kishanlarni ham sindirib tashlar edi.
Uni tinchitishga hech kimning kuchi yetmas edi. 5 Doimo, kechayu kunduz qabrlar
orasida, tog‘larda baqirib yurar, badanini toshlar bilan tilib, jarohatlar edi.

6 U Isoni uzoqdan ko‘rib, yugurib keldi–da, Unga ta’zim qilib, 7 ovozi boricha baqirdi:

— Ey Iso, Xudoyi Taoloning O‘g‘li!* Meni tinch qo‘y! Xudo haqi Senga yolvoraman,
menga azob berma!

8 Chunki Iso unga: “Ey yovuz ruh, bu odamdan chiqib ket!” — deb buyurgan edi.

9 Iso yovuz ruhdan:

— Isming nima? — deb so‘radi.

— Ismim Tumonat*, chunki bizlar ko‘pchilikmiz, — deb javob berdi u. 10 Ularni bu
hududdan tashqariga haydab chiqarmasligini Isodan qayta–qayta yolvorib so‘radi.

11 O‘sha tog‘ning yon bag‘rida katta cho‘chqa podasi o‘tlab yurgan edi. 12 Yovuz ruhlar
Isoga yolvorib:
— Bizni shu cho‘chqalarga yuborgin, ularga kiraylik, — deyishdi.
13 Iso ularga ruxsat berdi. Yovuz ruhlar esa shu zahoti u odamdan chiqib,
cho‘chqalarga kirib olishdi. Ikki mingga yaqin cho‘chqa tik qiyalikdan ko‘lga yopirilib,
cho‘kib ketdi.
14 Shunda cho‘chqa boquvchilar qochib ketib, bo‘lib o‘tgan hodisani shahar va
qishloqlarda gapirib yurdilar. Aholi esa nima bo‘lganini ko‘rishga bordi. 15 Ular Isoning
oldiga kelganlarida, ilgari tumonat jin qamragan odamni kiyingan va aqli raso holda
o‘tirganini ko‘rib, qo‘rqib ketishdi. 16 Voqeani ko‘rganlar esa haligi odam jindan qanday
qutulgani va cho‘chqalar bilan nima ro‘y bergani haqida xalqqa so‘zlab berishdi.
17 Shunda mahalliy xalq Isodan: “Hududimizdan chiqib keting”, deb o‘tindi.
18 Iso qayiqqa tushdi. Jindan qutulgan odam Isoga:
— Siz bilan ketay, — deb yolvordi. 19 Lekin Iso rozi bo‘lmadi. Unga shunday dedi:
— Uyingga bor, Men — Rabbing sen uchun nimalar qilganimni, qanday rahm–
shafqat ko‘rsatganimni o‘z yaqinlaringga gapirib ber.
20 Shunda u kishi borib, Iso unga qanchalar muruvvat ko‘rsatganini Dekapolis
hududida* e’lon qila boshladi. Hamma hayratga tushardi.

Sog‘aygan ayol va tirilgan qiz haqida

21 Iso qayiqda ko‘lning narigi tomoniga* yana suzib o‘tdi. Bir talay olomon qirg‘oqda
Uning atrofiga to‘plandi. 22 Shu payt Yair ismli bir kishi kelib qoldi. U sinagoga boshlig‘i
edi. U Isoni ko‘rdi–yu, oyog‘iga yiqilib:
23 — Mening jajji qizim o‘lim to‘shagida yotibdi. Kelib unga qo‘lingizni tekkizing, u
sog‘ayib tirik qolsin, — deb qayta–qayta yolvordi.
24 Iso u bilan ketdi. Isoning orqasidan ko‘p xaloyiq ergashib, Uni qisib qo‘yar edi. 25 U
yerda o‘n ikki yildan beri qon ketishidan azob chekayotgan bir ayol ham bor edi. 26 U
ko‘p tabiblar muolajasidan ancha qiynalib, butun mol–mulkini sarf etgani bilan hech
foyda ko‘rmagan, ahvoli battar yomonlashib borardi.
27 Ayol Iso haqida eshitdi–yu, xaloyiq orasida Isoning orqasidan kelib, kiyimiga qo‘l
tekkizdi. 28 U o‘zicha: “Agar kiyimiga bir tegib olsam bas, sog‘ayib ketaman”, deb
o‘ylagan edi. 29 U shunday qilishi bilanoq, qon ketishi to‘xtadi. Ayol kasallikdan forig‘
bo‘lganini o‘z tanasida his etdi.
30 Iso esa shu onda O‘zidan bir kuch chiqqanligini sezdi. U orqasiga o‘girilib
xaloyiqdan:
— Kiyimimga kim tegdi? — deb so‘radi. 31 Shogirdlari Unga:
— Sizni xaloyiq qisib turganligini ko‘rib turibsiz–ku! Nimaga yana: “Menga kim
tegdi?” deb so‘rayapsiz? — deyishdi.
32 Lekin Iso buni kim qilganini ko‘rish uchun atrofga qarar edi. 33 Ayol o‘zida qanday
o‘zgarish bo‘lganini bilib, titrab–qo‘rqib keldi, Isoning oyoqlari ostiga o‘zini tashlab,
butun haqiqatni Unga so‘zlab berdi. 34 Iso unga dedi:
— Qizim, ishonching seni sog‘aytirdi. Eson–omon bor, dardingdan xalos bo‘lgin.
35 Iso shunday deb turgan ham ediki, sinagoga boshlig‘ining uyidan odamlar kelib
unga:
— Qizingiz o‘ldi, nega yana Ustozni ovora qilyapsiz? — dedilar. 36 Iso bu so‘zlarni

eshitib qolib, sinagoga boshlig‘iga:

— Qo‘rqmang, faqat ishoning, — dedi.

37 Iso hech kimning ergashishiga yo‘l qo‘ymay, faqat Butrus, Yoqub va uning ukasi
Yuhannoni olib ketdi. 38 Sinagoga boshlig‘ining uyiga yetganlarida, bezovtalikni, dod–
faryod qilayotgan odamlarni ko‘rdilar*. 39 Iso ichkariga kirib:

— Nega bezovtasizlar? Nega yig‘layapsizlar? Qizcha o‘lmagan, u uxlab yotibdi, —
dedi. 40 Ular esa Isoning ustidan kulishdi.

Iso hammani tashqariga chiqarib yubordi. U qizchaning ota–onasi va shogirdlarini
olib qolib, qizcha yotgan xonaga kirdi. 41 Qizchaning qo‘lidan ushlab unga:

— Talifa kum!* — dedi. Bu gapning tarjimasi: “Qizaloq, qani, o‘rningdan tur!”
demakdir.

42 O‘n ikki yashar qizcha shu onda o‘rnidan turdi, yurib, atrofni aylana boshladi. Buni
ko‘rganlarning aqli shoshdi. 43 Iso:

— Buni hech kim bilmasin, — deb ularga qat’iy buyurdi va qizchaga ovqat
berishlarini aytdi.

6–BOB

Iso Nosira shahrida rad qilinadi

1 Iso u yerdan jo‘nab, ona shahriga* bordi. Shogirdlari ham Uning ortidan
ergashdilar.

2 Shabbat kuni Iso sinagogada ta’lim berdi. Uni tinglayotganlarning ko‘pchiligi
hayratga tushib:

— Bu Odam shuncha narsani qayerdan o‘rgandi ekan–a? — deb so‘rardilar. — Unga
bunday donolikni kim berdi? U bunday mo‘jizalarni qanday qilyapti? 3 Iye, U
Maryamning duradgor o‘g‘li–ku! Yoqub, Yusuf, Yahudo va Shimo‘nning akasi emasmi
bu?! Uning singillari ham oramizda yashaydi–ku!

Odamlar Isodan qattiq xafa bo‘ldilar. 4 Iso ularga shunday dedi:

— Payg‘ambar ona shahridan, o‘z qarindosh–urug‘lari va uyidan boshqa hamma
yerda izzatlanadi.

5 Iso u yerda hech qanday mo‘jiza ko‘rsata olmadi. Faqatgina birmuncha bemorlarga
qo‘l tekkizib, ularni sog‘aytirdi. 6 Iso odamlarning ishonchsizligiga hayron qoldi.

Iso o‘n ikki havoriyni xizmatga yuboradi

Shundan so‘ng Iso atrofdagi qishloqlarda kezib yurib, ta’lim berardi. 7 O‘n ikki
havoriyni yoniga chaqirib, ikkita–ikkitadan qilib jo‘nata boshladi. Ularga yovuz ruhlar
ustidan hokimiyat berdi. 8 Ularga buyurib dedi: “Yo‘l uchun yolg‘iz hassadan boshqa
hech narsa — non ham, to‘rva ham, belbog‘laringizga mis chaqa ham qistirib olmanglar,
9 oyog‘ingizga choriq kiyib, ustingizga qo‘shimcha kiyim olmanglar.”

10 Iso yana dedi: “Biror yerga borib, bironta uyga kirganingizda, to o‘sha joyni tark
etguningizgacha, shu uyda turinglar. 11 Agar biror joyning odamlari sizni qabul qilmasa
va sizga quloq solmasa, u yerdan chiqib ketayotganingizda ularni ogohlantirish
tariqasida oyoqlaringizning changini qoqib ketinglar*.”*

12 Shunday qilib, havoriylar yo‘l yurib, tavba qilinglar, deb hammani da’vat qilishdi.
13 Ular ko‘p jinlarni quvib chiqarishdi va ko‘p xastalarga zaytun moyi surtib* ularni
sog‘aytirishdi.

Yahyo choʻmdiruvchining oʻlimi

14 Isoning nomi el ogʻziga tushib qolgan edi. Shoh Hirodning* qulogʻiga ham mish–
mishlar yetib bordi. Baʼzi odamlar: “Yahyo choʻmdiruvchi tirilib kelibdi. Shuning uchun
U moʻjizalar koʻrsatish qudratiga ega”, deyishardi*. 15 Boshqalar esa: “Bu Ilyos*”, deb
aytishardi. Yana boshqa birovlari: “Qadimgi paygʻambarlarga oʻxshagan bir paygʻambar
bu”, deb aytardilar. 16 Hirod bularni eshitib: “Men boshini oldirgan Yahyo tirilib kelibdi”,
dedi.

17-18 Hirod oʻz ukasi Filipning xotini Hirodiyaga uylangan edi. Yahyo esa Hirodga: “Siz
ukangizning xotiniga uylana olmaysiz, bu qonunga zid”, deb aytar edi. Shuning uchun
Hirod Yahyoni qoʻlga olib, zindonga qamatib qoʻygan edi. 19 Hirodiyaning ham Yahyoda
qasdi bor edi. U Yahyoni oʻldirmoqchi boʻlardi, ammo bu niyatiga yeta olmayotgan edi.
20 Negaki Hirod Yahyoning solih va muqaddas kishi ekanini bilib, undan qoʻrqar va uni
himoya qilar edi. Uning soʻzlari Hirodni gangitib qoʻyardi, shunga qaramay, Hirod uni
eshitishni xush koʻrardi*.

21 Bir kuni qulay fursat tugʻilib qoldi. Hirod oʻzining tugʻilgan kuni munosabati bilan
amaldorlariga, lashkarboshilariga va Jalila hududining yoʻlboshchilariga ziyofat berdi.
22 Hirodiyaning qizi* kirib, raqs tushdi va Hirod bilan ulfatlarining koʻnglini topdi. Shoh
qizga:

— Tila tilagingni, tilagan narsangni beraman, — dedi. 23 Unga hatto qasam ichib:

— Mendan nima soʻrasang, beraman, shohligimning yarmigacha boʻlsa ham,
beraman, — dedi.

24 Qiz tashqariga chiqib onasiga:

— Nima soʻray? — dedi.

— Yahyo choʻmdiruvchining boshini soʻra! — dedi onasi.

25 Qiz shu onda shoh huzuriga yugurib borib:

— Menga hoziroq Yahyo choʻmdiruvchining boshini laganda keltirib berishingizni
soʻrayman, — dedi.

26 Shoh juda xafa boʻldi. Ammo mehmonlari oldida qasam ichgani uchun qizning
iltimosini rad etishni istamadi. 27 U oʻsha zahoti jallodni yuborib, Yahyoning boshini
keltirishni buyurdi. 28 Jallod zindonga borib, Yahyoning boshini tanidan judo qildi. Keyin
uning boshini laganda keltirib, qizga berdi. Qiz esa onasiga berdi. 29 Yahyoning
shogirdlari yuz bergan hodisani eshitib, uning jasadini olgani borishdi va uni dafn
etishdi.

Iso 5000 kishini toʻydiradi

30 Havoriylar Isoning oldiga yigʻilib, qilgan hamma ishlarini, xalqqa nimalar
oʻrgatishganini aytib berdilar*. 31 Iso ularga:

— Kelinglar, yolgʻiz oʻzimiz kimsasiz joyga boraylik, bir oz dam olinglar, — dedi.
Chunki kelib–ketuvchilar koʻpligidan ularning ovqat yeyishga ham vaqti yoʻq edi.

32 Iso bilan shogirdlari qayiqqa tushib*, yolgʻiz oʻzlari kimsasiz joyga joʻnab ketishdi.
33 Lekin koʻpchilik ularning qayerga ketayotganini bilib qoldilar. Shunda atrofdagi
hamma shaharlardan odamlar piyoda yoʻlga tushishdi, Iso bilan shogirdlari borayotgan
joyga yugurib, ulardan oldin yetib borishdi. 34 Iso qayiqdan tushganda, katta bir
olomonni koʻrdi. Ularga achinib ketdi, chunki ular choʻponsiz qoʻylarga oʻxshardi. Iso
ularga koʻp narsalar haqida taʼlim berdi.

35 Kech kirganda, shogirdlar Isoning oldiga kelib dedilar:
— Bu joy kimsasiz ekan, buning ustiga, juda kech boʻlib qoldi. 36 Xalqni joʻnatib yuboring, toki ular atrofdagi qishloq va ovullarga borib, oʻzlariga yegulik sotib olishsin.
37 — Sizlar ularga ovqat beringlar! — dedi Iso.
— Nahotki biz ikki yuz kumush tangaga* non sotib olib kelib, xalqqa yedirsak? — deb soʻrashdi Undan. 38 Iso dedi:
— Qancha nonlaringiz bor? Borib koʻringlar.
Ular bilib kelib:
— Beshta non, ikkita baliq bor ekan, — deyishdi.
39 Iso xaloyiqni guruh–guruh qilib, yashil oʻt ustiga oʻtqazishni shogirdlariga buyurdi. 40 Xalq yuztadan va elliktadan guruh–guruh boʻlib oʻtirdi. 41 Iso beshta non bilan ikkita baliqni oldi va osmonga qarab, shukrona duosini oʻqidi. Nonlarni sindirib, xaloyiqqa tarqatish uchun shogirdlariga berdi. Ikkita baliqni ham hammaga taqsimlab berdi. 42 Hamma yeb toʻydi. 43 Soʻng ortib qolgan non burdalarini va baliqlarni yigʻib olishgan edi, toʻla oʻn ikki savat chiqdi. 44 Non yeganlar orasida besh ming erkak bor edi.

Iso suv ustida yuradi

45 Iso vaqt oʻtkazmay, shogirdlarini qayiqqa tushirib, koʻlning narigi tomonidagi* Baytsayda shahriga* ketishga majbur qildi. Olomonni esa uylariga qaytarib joʻnatib yubordi. 46 Odamlar bilan xayrlashgandan keyin, ibodat qilish uchun tepalikka chiqdi.
47 Oqshom tushdi. Qayiq koʻlning oʻrtasida, Iso esa yolgʻiz Oʻzi quruqlikda qolgan edi. 48 Shogirdlar eshkak eshishga qiynalayotgan edilar, chunki shamol qayiqqa qarshi esar edi. Iso buni koʻrib, erta saharda koʻl ustida yurganicha shogirdlari tomon bordi–da, ularning oldidan oʻtib ketmoqchi boʻldi*. 49 Shogirdlar esa koʻl yuzida yurgan Isoni koʻrib, arvoh deb oʻylab, baqirib yuborishdi. 50 Chunki hammalari Uni koʻrib, vahimaga tushib qolgan edilar. Lekin Iso oʻsha zahoti ularga:
— Dadil boʻlinglar! Qoʻrqmanglar, bu Menman! — dedi.
51 Soʻng Iso shogirdlari yoniga — qayiqqa oʻtgach, shamol tinib qoldi. Shogirdlar tamomila hayratga tushdilar, 52 chunki ular non toʻgʻrisidagi moʻjizani ham tushunmagan edilar, ularning imoni sust edi*.
53 Ular koʻldan suzib oʻtib*, Genisaret* oʻlkasiga keldilar. Oʻsha yerda qayiqni bogʻladilar. 54 Qayiqdan chiqishlari bilanoq xalq Isoni tanib qoldi. 55 Odamlar butun yurtni yugurib aylanib chiqdilar, xastalarni toʻshaklarda Isoning oldiga olib bordilar. Ular har safar Isoning qayerdaligini eshitishsa xastalarni oʻsha yerga olib borishardi. 56 Iso qayerga bormasin — qishloqlargami, shaharlargami, ovullargami — odamlar xastalarni ochiq maydonlarga yotqizib qoʻyishardi. Xastalar Isodan: “Hech boʻlmasa kiyimingizning etagiga qoʻl tekkizaylik”, deb iltimos qilishardi. Unga qoʻl tekkizganlarning hammasi shifo topardi.

7–BOB

Diniy urf–odatlar va Xudoning amri

1 Farziylar va Quddusdan kelgan ayrim Tavrot tafsirchilari Isoning yoniga yigʻilib keldilar. 2 Ular Isoning shogirdlaridan ba’zilari harom, ya’ni yuvilmagan qoʻllari* bilan non yeyayotganlarini koʻrib qoldilar. 3 Farziylar va umuman yahudiylar ota–bobolarining urf–odatini saqlab, hech ham qoʻllarini yuvmasdan ovqat yemaydilar.

4 Bozordan qaytganlarida ham yuvinmay ovqat yemaydilar. Shuningdek, so‘ri, kosa,
tovoq, qozonni yuvish kabi ko‘pgina udumlarga rioya qiladilar.
5 Shunday qilib, farziylar va tafsirchilar Isodan so‘radilar:
— Nega Sizning shogirdlaringiz ota–bobolarimizning urf–odatini saqlashmaydi?
Nima uchun harom qo‘llari bilan non yeyishadi?
6 Iso ularga shunday javob berdi:
— Ishayoning bashorati siz ikkiyuzlamachilarga juda to‘g‘ri keladi. Xudoning
quyidagi so‘zlarini Ishayo yozib qoldirgan:

“Bu xalq Meni tilidagina izzat qiladi,
Yuraklari esa Mendan uzoqdir.
7 Ular Menga sajda qiladilar,
Ammo sajdalari behudadir.
Chunki ular inson yaratgan qoidalarni
Ilohiy qonun deb o‘rgatadilar.”*

8 Sizlar Xudoning amrlarini yig‘ishtirib qo‘yasizlar, insoniy urf–odatlarga esa yopishib
olasizlar*.
9 Iso yana ularga dedi:
— Ha, sizlar urf–odatlaringizni saqlash uchun Xudoning amrlarini chetlab o‘tishning
zo‘r yo‘lini topgansizlar! 10 Muso aytgan edi: “Ota–onangizni hurmat qiling. Otasini yoki
onasini xo‘rlagan har qanday odamga o‘lim jazosi berilsin.”* 11 Ammo sizlar shunday
ta’lim berasizlar: odam o‘z otasi yoki onasiga: “Farzandlik burchim — Xudoga qurbon,
ya’ni Xudoga in’om qilingan”, deb aytishi mumkin. 12 Shundan keyin o‘sha odamning
otasiga yoki onasiga yaxshilik qilishiga sizlar yo‘l qo‘ymaysizlar. 13 Shu tariqa sizlar
o‘zlaringiz o‘rnatgan urf–odatlaringiz orqali Xudoning kalomini bekor qilasizlar. Sizlar
bunga o‘xshash yana ko‘p ishlarni qilasizlar.

Insonni nima harom qiladi?

14 Keyin Iso butun xalqni yana yoniga chaqirib, dedi:
— Hammalaringiz Menga quloq solib, tushunib olinglar! 15-16 Tashqaridan inson
ichiga kiradigan hech narsa uni harom qila olmaydi. Aksincha, inson ichidan chiqadigan
narsa uni harom qiladi*.
17 Iso xaloyiq orasidan chiqib uyga kirdi, shogirdlar Undan: “Haligi aytganlaringizni
tushuntirib bering”, deb iltimos qilishdi. 18 Iso ularga dedi:
— Sizlar ham shunchalik befahmmisizlar?! Tashqaridan insonning ichiga kiradigan
hech narsa uni harom qila olmasligini anglamaysizlarmi? 19 Bu narsalar insonning
qalbiga emas, qorniga kiradi va kerakli joydan chiqib ketadi.
Iso bu gaplari bilan hamma yeguliklar halol ekanini e’lon qildi.
20 U yana dedi:
— Insonning ichidan chiqadigan narsalar insonni harom qiladi. 21 Chunki ichdan,
ya’ni inson qalbidan yomon fikrlar, fahsh, o‘g‘rilik, qotillik, 22 zino, ochko‘zlik, fosiqlik,
makkorlik, shahvat, hasad, tuhmat, manmanlik va nodonlik chiqadi. 23 Ana shu
yomonliklarning hammasi insonning ichidan chiqib, uni harom qiladi.

G‘ayriyahudiy ayolning ishonchi

24 Iso u yerdan chiqib, Tir* hududiga ketdi. Bir uyga kirdi va buni hech kim bilib
qolishini istamas edi, lekin yashirina olmadi.
25 Qizalog‘ini yovuz ruh chalgan bir ayol Iso haqida eshitib qoldi–da, tez kelib, Uning
oyog‘iga yiqildi. 26 Bu ayol Suriyadagi Finikiya* o‘lkasida tug‘ilgan bo‘lib, yahudiy emas
edi. U:
— Qizimdan jinni quvib chiqaring, — deb Isodan yolvorib so‘radi. 27 Biroq Iso unga:
— Avval bolalar to‘ysin, bolalardan nonni olib kuchuklarga tashlash yaxshi emas, —
dedi.
28 — To‘g‘ri, Hazrat*, — dedi ayol. — Lekin kuchuklar ham bolalarning
dasturxonidan to‘kilgan ushoqlarini yeydi–ku.
29 Iso unga:
— Mana shu gaping uchun senga yordam beraman. Endi ketaver. Qizingdan jin
chiqib ketdi, — dedi.
30 Ayol uyiga borganda, qizini jindan qutulib, to‘shakda yotgan holda ko‘rdi.

Iso kar odamga shifo beradi

31 Iso Tir hududidan chiqib, Sidonga* bordi. So‘ng Jalila ko‘li bo‘ylaridan o‘tib,
Dekapolis hududiga* bordi. 32 Ayrim odamlar Isoning oldiga zo‘rg‘a gapiradigan bir kar
odamni olib kelib, unga qo‘l tekkizishini so‘rashdi. 33 Iso u odamni xaloyiq orasidan bir
chetga olib chiqdi, so‘ng O‘z barmoqlarini uning quloqlariga tiqib qo‘ydi. So‘ng tupurib,
so‘lagini o‘sha odamning tiliga tekkizdi. 34 Keyin osmonga qarab, chuqur xo‘rsindi–da,
unga: “Effatah!”* dedi. Bu so‘zning tarjimasi “Ochil!” demakdir. 35 Shu onda u odamning
quloqlari ochilib, tilga kirdi, ravongina gapira boshladi.
36 Iso u yerdagilarga, buni hech kimga aytmanglar, deb buyurdi. Biroq Iso odamlarga
qancha man etsa ham, ular bu hodisani yanada ko‘proq yoyishardi. 37 Ular haddan
tashqari hayratda qolib, shunday deyishardi: “U hamma narsani yaxshi qiladi, karlarni
eshitadigan, soqovlarni gapiradigan qiladi.”

8–BOB

Iso 4000 kishini to‘ydiradi

1 O‘sha kunlarda yana ko‘p odam yig‘ildi. Ularning yeyish uchun hech narsalari
qolmaganda, Iso shogirdlarini yoniga chaqirib dedi:
2 — Xalqqa achinyapman. Ular uch kundan beri Men bilan birga, yeyishga hech
narsasi yo‘q. 3 Agar ularni uylariga ovqat bermay jo‘natib yuborsam, yo‘lda holdan toyib
qoladilar. Ularning ba’zilari uzoq yerlardan kelganlar.
4 Shogirdlari bunga javoban:
— Ularni to‘ydirish uchun bu kimsasiz joyda kim qayerdan non topa olardi?! —
deyishdi.
5 — Qancha nonlaringiz bor? — deb so‘radi Iso.
— Yettita, — dedi shogirdlar.
6 Shundan keyin Iso xalqqa yerga o‘tirishni buyurdi. Yettita nonni olib, shukrona
duosini o‘qib sindirdi va tarqatish uchun shogirdlariga berdi. Shogirdlar xalqqa
tarqatishdi. 7 Ularda bir nechta mayda baliq ham bor edi. Iso baliqlar uchun shukurlar
aytib, baliqlarni ham tarqatishni buyurdi. 8 Xalq yeb to‘ydi. Ortib qolgan non burdalarini

yig‘ishganda, yettita savat to‘ldi. 9 U yerda to‘rt mingga yaqin odam bor edi.

Iso ularni jo‘natgandan keyin, 10 darhol shogirdlari bilan qayiqqa tushib, Dalmanuta* hududiga ketdi.

Farziylar Isodan alomat so‘rashadi

11 Farziylar Isoning oldiga borib, U bilan bahslasha boshladilar. Uni sinab ko‘rish maqsadida shunday dedilar:

— Bizga bir mo‘jizali alomat ko‘rsating, shunda Sizni Xudo yuborganini tan olamiz.

12 Lekin Iso chuqur xo‘rsindi:

— Nega bu avlod alomat talab qilyapti? Sizlarga chinini aytayin, bu avlodga hech qanday alomat berilmaydi!

13 Iso ularning oldidan ketdi, yana qayiqqa tushib, narigi qirg‘oqqa* o‘tib oldi.

Iso shogirdlarini koyiydi

14 Shogirdlar o‘zlari bilan non olishni unutgan ekanlar. Qayiqda bir dona non bor edi, xolos. 15 Shu orada Iso shogirdlarini ogohlantirib dedi:

— Farziylar va Hirodning* xamirturushidan* ehtiyot bo‘linglar!

16 Shogirdlar o‘zlaricha: “Biz non olmaganimiz uchun U shunday deyapti”, deb muhokama qila boshladilar. 17 Shogirdlar nimani muhokama qilayotganlarini Iso bilib, ularga dedi:

— Nega sizlar, nonimiz yo‘q, deb aytyapsizlar? Hali ham tushunmayapsizlarmi, anglamayapsizlarmi? Imoningiz shunchalik sustmi?!* 18 Ko‘zlaringiz bor–ku, nahotki ko‘rmasangiz?! Quloqlaringiz bor–ku, nahotki eshitmasangiz?! Eslab ko‘ring: 19 Men beshta nonni sindirib, besh mingta erkakka bo‘lib berganimda, sizlar qolgan non burdalari bilan nechta savatni to‘ldirib olgansizlar?

— O‘n ikkita savatni, — deb javob berdi ular.

20 — Men yettita nonni sindirib, to‘rt ming kishiga bo‘lib berganimda, burdalari bilan nechta savatni to‘ldirib olgansizlar?

— Yettita savatni, — deyishdi.

21 — Hali ham anglamadingizmi? — deb so‘radi ulardan Iso.

Iso ko‘rni sog‘aytiradi

22 Iso shogirdlari bilan Baytsayda shahriga* keldi. Odamlar Isoning oldiga bir ko‘rni olib kelib: “Unga qo‘lingizni tekkizib qo‘ying”, deb yolvordilar. 23 Iso ko‘rning qo‘lidan ushlab, shahardan yetaklab olib chiqdi. So‘ng ko‘zlariga tupurib, qo‘llarini uning ustiga qo‘ydi–da:

— Biron narsa ko‘ryapsanmi? — deb so‘radi. 24 Ko‘r boshini ko‘tarib:

— Odamlarni ko‘ryapman, lekin ular yurayotgan daraxtlarga o‘xshaydi, — dedi.

25 Shundan keyin Iso qo‘llarini yana ko‘rning ko‘zlariga tekkizdi*. Ko‘r odam ko‘zlarini ochib qarasa, sog‘ayib qolgan, hamma narsani aniq ko‘rayotgan edi. 26 Iso uni uyiga jo‘natar ekan:

— Qishloqqa kirmay, to‘g‘ri uyingga ket*, — dedi.

Butrus Masihni tan oladi

27 Iso shogirdlari bilan Filip Qaysariyasi* atrofidagi qishloqlarga yo‘l oldi. Yo‘lda U shogirdlaridan:

— Odamlar Meni kim deb biladi? — deb so‘radi. 28 Shogirdlar Isoga shunday javob

berishdi:

— Ba’zilar Sizni Yahyo cho‘mdiruvchi deb hisoblaydilar, ba’zilar Ilyos*, boshqalari esa, qadimgi payg‘ambarlardan biri, deb aytib yuribdilar.

29 Iso ulardan so‘radi:

— Sizlar–chi, Meni kim deb bilasiz?

Butrus Unga javob berib:

— Siz Masihsiz*, — dedi.

30 Shundan so‘ng Iso, Men haqimda hech kimga gapirmanglar, deb shogirdlariga qat’iy buyurdi.

Iso O‘z o‘limi haqida gapiradi

31 Iso shogirdlariga shunday deb uqtira boshladi: “Inson O‘g‘li ko‘p azob chekadi. Yo‘lboshchilar, bosh ruhoniylar* va Tavrot tafsirchilari tomonidan rad qilinib, o‘ldiriladi. Uchinchi kuni esa tiriladi.” 32 U bu haqda ochiqdan–ochiq gapirdi. Shunda Butrus Isoni chetga tortib:

— Ustoz, bunday deb aytmang, — dedi. 33 Ammo Iso o‘girilib shogirdlariga qaradi–da, Butrusni qattiq koyib dedi:

— Yo‘qol ko‘zimdan, shayton! Sen Xudoning ishlarini emas, inson ishlarini o‘ylayapsan.

34 Shundan so‘ng Iso xalq bilan shogirdlarini oldiga chaqirib dedi:

— Kimda–kim Menga ergashishni istasa, o‘zidan kechsin va o‘z xochini ko‘tarib*, ortimdan yursin. 35 Kim o‘z jonini asrab qolmoqchi bo‘lsa, uni yo‘qotadi. Kim Men uchun va Xushxabar uchun jonini bersa, jonini asrab qoladi. 36 Agar inson butun dunyoni egallab olsa–yu, o‘z jonidan mahrum bo‘lsa, bundan unga nima foyda?! 37 Inson o‘z joni evaziga qanday to‘lov bera oladi?! 38 Bu bevafo va gunohkor nasl orasida Mendan va Mening so‘zlarimdan uyalmanglar! Aks holda, Inson O‘g‘li muqaddas farishtalar bilan birga Otasining* ulug‘vorligiga burkanib kelganda, U ham sizlardan uyaladi.

9–BOB

Isoning qiyofasi o‘zgaradi

1 Iso ularga yana dedi:

— Sizlarga chinini aytayin, bu yerda turganlardan ba’zilari borki, ular Xudoning Shohligi qudrat bilan kelishini ko‘rmagunlaricha, o‘lmaydilar.

2 Oradan olti kun o‘tdi. Iso yoniga Butrus, Yoqub va Yuhannoni olib, baland bir toqqa chiqdi. U yerda, ularning ko‘z o‘ngida Isoning qiyofasi o‘zgarib ketdi. 3 Uning kiyimlari ham ko‘zni qamashtiradigan darajada oppoq bo‘lib qoldi, yer yuzida hech bir kir yuvuvchi bunday oqartira olmas edi.

4 Shunda shogirdlar Iso bilan gaplashib turgan Ilyos bilan Musoni ko‘rishdi. 5 Butrus Isoga dedi:

— Ustoz, yaxshi ham shu yerda ekanmiz! Keling, uchta chayla yasaylik: bittasi Sizga, bittasi Musoga, bittasi Ilyosga.

6 Shogirdlar shunchalik qo‘rqib ketgan edilarki, Butrus nima deb aytayotganini o‘zi ham bilmas edi.

7 Shu paytda bulut paydo bo‘lib, ularga soya soldi. Bulut orasidan shunday ovoz eshitildi:

— Bu Mening sevikli O‘g‘limdir*, Unga quloq solinglar!
8 Birdaniga shogirdlar atrofga qarab, yolg‘iz Isodan boshqa hech kimni ko‘rishmadi.
9 Tog‘dan tushayotganlarida Iso ularga buyurdi:
— Inson O‘g‘li o‘lib tirilmaguncha, bu ko‘rganlaringizni hech kimga aytmanglar.
10 Ular bu haqda hech kimga aytmadilar, ammo o‘zaro: “O‘likdan tirilish nima degani ekan?” deb, bu xususda munozara qila boshladilar. 11 Ular Isodan so‘radilar:
— Nega Tavrot tafsirchilari, Masihdan oldin Ilyos kelishi kerak*, deb aytadilar?
12 Iso ularga javoban dedi:
— To‘g‘ri, avvalo Ilyos kelib, hamma narsani tiklaydi. Xo‘sh, Muqaddas bitiklarda*, Inson O‘g‘li ko‘p azob chekishi va xo‘rlanishi kerak, deb ham yozilmaganmi?! 13 Biroq Men sizlarga shuni aytaman: Ilyos allaqachon kelgan* va u haqda yozilganidek, uni xohlaganlaricha xo‘rladilar*.

Jinga chalingan bolaga Iso shifo beradi

14 Iso uch shogirdi bilan tog‘dan tushganda, ular qolgan shogirdlari atrofiga yig‘ilgan katta olomonni ko‘rdilar. Ba’zi Tavrot tafsirchilari Isoning shogirdlari bilan bahslashayotgan edilar. 15 Odamlar Isoni ko‘rib, hayratga tushishdi. Uning oldiga yugurib borib, salom berishdi.
16 — Nimalar to‘g‘risida bahslashyapsizlar? — deb so‘radi Iso. 17 Olomon orasidan kimdir javob berdi:
— Ustoz! Sizning oldingizga o‘g‘limni olib kelgan edim, uni jin chalgani uchun gapira olmaydi. 18 Jin uni qayerda tutib olsa, yerga yiqitadi. O‘g‘limning og‘zidan ko‘pik chiqadi, u tishlarini g‘ichirlatib, qotib qoladi. Men shogirdlaringizga, jinni quvib chiqaringlar, dedim, ammo ular eplay olmadilar.
19 Iso bunga javoban:
— Ey imonsiz avlod! Qachongacha sizlar bilan birga bo‘lishim kerak?! Sizlarga yana qancha toqat qilishim kerak?! Oldimga keltiringlar bolani! — dedi.
20 Bolani Isoning oldiga keltirishdi. Isoni ko‘rishi bilanoq jin bolani qaltiratib tashladi. Bola yerga yiqildi–yu, og‘zidan ko‘pik oqizgancha ag‘nab yotaverdi. 21 Iso uning otasidan:
— Qachondan beri u bunday ahvolga tushadi? — deb so‘radi.
— Bolaligidan shunaqa. 22 Jin uni halok qilmoqchi bo‘lib ko‘p marotaba olovga, suvga tashladi. Agar qo‘lingizdan kelsa, bizlarga rahm qiling, yordam bering, — dedi. 23 Iso unga shunday javob berdi:
— “Qo‘lingizdan kelsa” deganing nimasi?! Agar odam ishonsa, hamma narsaning imkoni bor.
24 Shu on bolaning otasi hayqirib yubordi:
— Ishonaman! Ishonchsizligimni yengishimga yordam bering!
25 Tomoshaga yig‘ilayotgan xalqni ko‘rgan Iso yovuz ruhga do‘q qilib:
— Ey gung qiladigan ruh, Men senga buyuraman: boladan chiqib ket! Bundan keyin hech qachon uning ichiga qaytib kirma! — dedi.
26 Shunda jin qattiq qichqirib yubordi–da, bolani shiddat bilan qaltiratib, undan chiqib ketdi. Bola o‘likday bo‘lib qolganidan, ko‘pchilik uni o‘ldi, deb aytdi. 27 Lekin Iso uni qo‘lidan ushlab turishiga yordam berdi, bola oyoqqa turdi.
28 Iso uyga kirdi. U yolg‘iz ekan, shogirdlari Undan:

— Nega biz jinni quvib chiqara olmadik? — deb so‘radilar. [29] Iso ularga dedi:
— Bu toifa jinlarni ibodatdan* boshqa yo‘l bilan haydab bo‘lmaydi.

Iso yana O‘z o‘limi haqida gapiradi

[30] Iso va shogirdlari u yerdan jo‘nab, Jalila hududidan o‘tdilar. Iso buni hech kim bilib qolishini istamas edi. [31] U shogirdlariga ta’lim berib, shunday dedi:
— Inson O‘g‘li odamlar qo‘liga tutib beriladi. Uni o‘ldirishadi, uchinchi kuni esa U tiriladi.
[32] Shogirdlar esa bu so‘zlarni tushunmadilar, ammo Undan gaplarining ma’nosini so‘rashga botina olmadilar.

Eng katta kim?

[33] Iso shogirdlari bilan Kafarnahum shahriga keldi. Uyda bo‘lganda, shogirdlaridan so‘radi:
— Yo‘lda ketayotib nimalar haqida bahslashdingiz?
[34] Ular indamadilar, chunki ular: “Oramizda eng katta kim?” deb o‘zaro bahslashgan edilar.
[35] Iso o‘tirib, o‘n ikki shogirdini yoniga chaqirdi:
— Kim birinchi bo‘lishni istasa, hammaning oxirida tursin va hammaga xizmatkor bo‘lsin, — dedi.
[36] So‘ngra bir bolani olib, ularning o‘rtasiga turg‘izib qo‘ydi va bolani quchoqlagancha, shogirdlariga dedi:
[37] — Kim shunday bolalardan birini Mening nomimdan qabul qilsa, u Meni qabul qilgan bo‘ladi. Kim Meni qabul qilsa, u Meni emas, balki Meni Yuborganni qabul qilgan bo‘ladi.

Bizga qarshi bo‘lmagan — biz tomondadir

[38] Yuhanno Isoga dedi:
— Ustoz! Biz bir odamni ko‘rdik. U Sizning nomingiz bilan jinlarni quvib chiqarayotgan ekan. U biz bilan yurmagani uchun unga bunday qilishni man etdik.
[39] Iso shunday dedi:
— Man etmang! Chunki Mening nomim bilan mo‘jiza yaratgan biror bir kimsa darrov Meni yomonlay olmaydi. [40] Kim bizga qarshi bo‘lmasa, u biz tomonda. [41] Sizlarga chinini aytay: Masihga tegishli bo‘lganingiz uchun sizga bir piyola suv bergan har qanday odam albatta mukofotini oladi.

Yo‘ldan ozdirish haqida

[42] Iso so‘zida davom etdi:
— Menga ishongan shu kichiklarning birontasini* yo‘ldan ozdirgan odamning holiga voy. Bunday qilgandan ko‘ra, o‘sha odamning bo‘yniga tegirmon toshini osib, uni dengizga tashlashgani o‘zi uchun yaxshiroq bo‘lardi. [43-44] Agar yo‘ldan ozishingga qo‘ling sababchi bo‘lsa, uni chopib tashla. Ikki qo‘ling bilan so‘nmas do‘zax o‘tiga yo‘liqqaningdan ko‘ra, mayib bo‘lib abadiy hayotdan bahramand bo‘lganing yaxshiroqdir*. [45-46] Agar yo‘ldan ozishingga oyog‘ing sababchi bo‘lsa, uni chopib tashla. Ikki oyog‘ing bilan do‘zaxga tashlangandan ko‘ra, cho‘loq bo‘lib abadiy hayotdan bahramand bo‘lganing yaxshiroqdir*. [47] Agar yo‘ldan ozishingga ko‘zing sababchi bo‘lsa, uni o‘yib tashla. Ikki ko‘zing bilan do‘zaxga tashlangandan ko‘ra, bir ko‘zing bilan

Xudoning Shohligiga kirganing yaxshiroqdir. 48 Do‘zaxning qurti ham o‘lmaydi, olovi
ham o‘chmaydi*. 49 Har bir odam olovda tuzlanib, poklanadi*.* 50 Tuz — yaxshi narsa.
Lekin tuz o‘z sho‘rligini yo‘qotsa, qanday qilib tuzni sho‘r qila olasizlar?! Tuzday
bo‘linglar, o‘zaro tinch–totuv yashanglar*.

10–BOB

Nikoh va ajralish haqida

1 Iso u yerdan ketib, Yahudiya o‘lkasiga, so‘ng Iordan daryosining sharq tomoniga
bordi. Uning atrofiga yana ko‘p xalq yig‘ildi. U O‘z odatiga ko‘ra, odamlarga yana ta’lim
berdi. 2 Ba’zi farziylar keldilar va Isoni sinamoqchi bo‘lib, so‘radilar:

— Qonunga ko‘ra, er o‘z xotinidan ajralishi mumkinmi?*

3 Iso bunga javoban:

— Muso sizlarga nimani amr qilgan? — deb so‘radi.

4 — Erkak taloq xatini yozib, xotinidan ajralishiga Muso ijozat bergan edi*, —
deyishdi. 5 Iso ularga dedi:

— Bag‘ri toshligingiz uchun Muso sizlarga bu amrni yozib qoldirgan. 6 Aslida Xudo
dunyoni yaratganda odamlarni erkagu ayol qilib yaratdi*. 7 “Shuning uchun erkak kishi
ota–onasidan bo‘lak bo‘lib, 8 xotiniga bog‘lanib qoladi, ikkalasi bir tan bo‘ladilar.”* Bunga
ko‘ra, ular endi ikki emas, balki bir tan hisoblanadilar. 9 Xudo birga qo‘shganni bandasi
ajratmasin.

10 Uyga kelganlarida, shogirdlar yana shu haqda Isodan so‘radilar. 11 Iso ularga dedi:

— Kim o‘z xotini bilan ajrashib boshqasiga uylansa, u xotiniga nisbatan zino qilgan
bo‘ladi. 12 Xotin ham agar o‘z eri bilan ajrashib boshqasiga tegsa, zino qilgan bo‘ladi.

Iso bolalarni duo qiladi

13 Iso bolalarimizga qo‘l tekkizsin deb, odamlar Uning oldiga bolalarini olib
kelishardi. Shogirdlar esa o‘sha odamlarni koyishardi. 14 Iso buni ko‘rganda, g‘azablanib
dedi:

— Bolalarga yo‘l beringlar, Mening oldimga kelishlariga to‘sqinlik qilmanglar! Zero,
Xudoning Shohligi bundaylarnikidir. 15 Sizlarga chinini aytayin: kim Xudoning Shohligini
bola kabi qabul qilmasa, unga hech qachon kirolmaydi.

16 Keyin bolalarni quchoqlab, ularga qo‘l qo‘yib, duo qildi.

Boylik va abadiy hayot

17 Iso yo‘lga chiqayotganda, bir odam yugurib kelib, Uning oldida tiz cho‘kdi–da:

— Valine’mat Ustoz! Abadiy hayotga ega bo‘lish uchun nima qilishim kerak? — deb
so‘radi. 18 Iso unga dedi:

— Nega Meni valine’mat deysan? Birgina Xudodan boshqa hech kim valine’mat
emas–ku! 19 Sen amrlarni bilasan: “Qotillik qilma. Zino qilma. O‘g‘rilik qilma. Yolg‘on
guvohlik berma. Birovning haqini yema. Ota–onangni hurmat qilgin.”*

20 U kishi Isoga dedi:

— Ustoz! Bularning hammasiga yoshligimdan amal qilib kelaman.

21 Iso unga mehr bilan qarab, dedi:

— Senga bir narsa yetishmaydi. Borib, bor narsangni sot, pulini kambag‘allarga
tarqat. Shunda samoda xazinang bo‘ladi. Keyin kelib*, Menga ergashgin.

22 Bu so‘zlardan boyning ta’bi xira bo‘ldi. U g‘amgin bo‘lib qaytib ketdi, chunki uning
mol–mulki ko‘p edi.
23 Iso atrofga razm solib, shogirdlariga dedi:
— Mol–dunyosi bor odamlarning Xudo Shohligiga kirishi naqadar qiyin!
24 Bu so‘zlarni eshitib, shogirdlarning aqli shoshdi. Iso esa takrorlab dedi:
— Bolalarim, Xudoning Shohligiga kirish naqadar qiyin!* 25 Boy odamning Xudo
Shohligiga kirishidan ko‘ra, tuyaning igna teshigidan o‘tishi osonroqdir.
26 Shogirdlar haddan tashqari ajablanib o‘zlaricha:
— Unday bo‘lsa, kim najot topa olar ekan? — deyishdi. 27 Iso ularga ko‘z tikib dedi:
— Inson uchun bu imkonsizdir, lekin Xudo uchun emas. Xudo uchun hamma
narsaning imkoni bor.
28 Shunda Butrus Isoga dedi:
— Mana, biz uy–joyimizni tashlab, Sizning orqangizdan ergashib keldik.
29 Iso bunga javoban dedi:
— Sizlarga chinini aytayin: kim Men uchun va Xushxabar uchun uy–joyini, aka–
ukalarini, opa–singillarini, ota–onasini, bolalarini yoki dalalarini tashlab ketsa, 30 u bu
dunyoning o‘zidayoq yuz hissa ortiq uy–joylarga, aka–ukalarga, opa–singillarga,
onalarga, bolalarga va dalalarga ega bo‘ladi, shu bilan birga quvg‘in ham qilinadi. Narigi
dunyoda esa abadiy hayotga sazovor bo‘ladi. 31 Ammo birinchi bo‘lganlarning ko‘plari
oxirgi bo‘ladilar, oxirgilar esa birinchi bo‘ladilar.

Iso O‘z o‘limi to‘g‘risida uchinchi marta gapiradi

32 Iso bilan shogirdlari Quddusga qarab ketayotgan edilar. Iso yo‘l boshlab borardi.
Shogirdlar xavotirda edi, Isoning ortidan ergashgan xalqni esa vahima qamrab olgandi.
Iso o‘n ikki shogirdini chetga olib, O‘zi bilan yuz beradigan voqealarni ayta boshladi:
33 — Mana, biz Quddusga ketyapmiz. U yerda Inson O‘g‘li bosh ruhoniylar va Tavrot
tafsirchilari qo‘liga tutib beriladi. Ular Uni o‘limga mahkum qilib, g‘ayriyahudiylarga*
topshiradilar. 34 G‘ayriyahudiylar Uni haqorat qiladilar, yuziga tupuradilar,
qamchilaydilar va Uni o‘ldiradilar. Lekin uchinchi kuni U tiriladi.

Yoqub bilan Yuhannoning tilagi

35 Zabadiyo o‘g‘illari Yoqub bilan Yuhanno Isoning oldiga kelib:
— Ustoz, bizning bir tilagimiz bor, uni biz uchun bajo keltirishingizni istaymiz, —
deyishdi.
36 — Sizlar uchun nima qilishimni istaysizlar? — deb so‘radi Iso. 37 Ular:
— Siz ulug‘vor taxtingizda o‘tirganingizda, birimiz Sizning o‘ng tomoningizda*,
boshqamiz esa chap tomoningizda o‘tirishimizga ruxsat bering, — deyishdi. 38 Iso ularga
dedi:
— Sizlar nima so‘rayotganingizni bilmaysizlar. Men ichadigan azob kosasidan* sizlar
icha olasizlarmi? Men boshdan kechiradigan qayg‘u–alamlarga botib chiday olasizlarmi?
39 Ular:
— Chiday olamiz, — deb javob berishdi. Iso ularga dedi:
— Sizlar–ku Men ichadigan azob kosasidan ichasizlar, boshdan kechiradigan qayg‘u–
alamlarimga o‘zingiz ham duchor bo‘lasizlar. 40 Ammo Mening o‘ng yoki chap
tomonimda o‘tirishga ruxsat berish Mening ixtiyorimda emas. Bu o‘rin kimlarga atalgan
bo‘lsa, ularniki bo‘ladi.

41 Qolgan o‘nta shogird buni eshitib, Yoqub bilan Yuhannodan achchiqlanib ketishdi.
42 Iso esa ularni yoniga chaqirib, dedi:
— Butparastlarga qaranglar, ular hukmdorlariga izzat ko‘rsatadilar, hukmdorlari esa ularga o‘z hukmini o‘tkazadilar, katta amaldorlari elga zo‘ravonlik qiladilar. 43 Ammo sizlarning orangizda bunday bo‘lmasin. Aksincha, orangizda kim katta bo‘lishni istasa, sizlarga xizmat qilsin. 44 Orangizda kim birinchi bo‘lishni istasa, hammangizga qul bo‘lsin. 45 Axir, Inson O‘g‘li ham O‘ziga xizmat qildirish uchun emas, balki O‘zi boshqalarga xizmat qilish va O‘z jonini fido qilib, ko‘plarni ozod qilish uchun kelgan.

Iso Yerixo shahrida ko‘r odamning ko‘zini ochadi

46 Iso bilan shogirdlari Yerixo shahriga keldilar. Ular shahardan chiqib ketayotganlarida bir talay xaloyiq ularga ergashdi. Timeyus o‘g‘li Bartimeyus ismli bir ko‘r tilanchi yo‘l chekkasida o‘tirgan edi. 47 U Nosiralik Iso o‘tib ketayotganini eshitib:
— Ey Dovud O‘g‘li* Iso, menga rahm qiling! — deb baqira boshladi. 48 Ko‘p odamlar esa:
— Jim bo‘l! — deb unga do‘q qilishdi. Lekin u:
— Ey Dovud O‘g‘li, menga rahm qiling! — deb yanada qattiqroq baqirdi.
49 Iso to‘xtab:
— Uni chaqirib kelinglar, — dedi. Odamlar kelib, ko‘r odamga:
— Dadil bo‘l, o‘rningdan tur. U seni chaqiryapti, — deb aytishdi.
50 Ko‘r to‘nini yechib tashlab, o‘rnidan sakrab turdi–da, Isoning yoniga keldi. 51 Iso undan so‘radi:
— Sen Mendan nima istaysan?
— Ustoz, ko‘zlarim ko‘rsin! — dedi ko‘r. 52 Iso unga:
— Boraver, ishonching seni sog‘aytirdi, — dedi.
O‘sha zahoti u ko‘ra boshladi. So‘ng Isoning ortidan ergashib ketdi.

11–BOB

Iso Quddusga tantanali kiradi

1 Iso shogirdlari bilan Quddusga yaqinlashib qolgan edilar. Ular Zaytun tog‘i* etagidagi Baytfagiya va Baytaniya qishloqlariga yetib kelayotganlarida, Iso shogirdlaridan ikkitasiga dedi:
2 — Anavi qishloqqa* boringlar. U yerga kirishingiz bilanoq, bog‘liq turgan va hech qachon minilmagan xo‘tikni ko‘rasizlar. O‘sha xo‘tikni yechib, bu yerga olib kelinglar.
3 Agar kimdir sizlardan: “Nima qilyapsizlar?” deb so‘rab qolsa, “Bu xo‘tik Rabbimiz Masihga kerak, xo‘tikni U darhol bu yerga qaytarib yuboradi”, deb javob beringlar.
4 Ular borib, ko‘chada darvoza yonida bog‘lab qo‘yilgan xo‘tikni ko‘rib, yechib olishdi.
5 U yerda turgan bir necha kishi ularga:
— Nima qilyapsizlar? Nega xo‘tikni yechyapsizlar? — deb so‘rashdi.
6 Shogirdlar Iso buyurganidek javob berishdi, odamlar ularni qo‘yib yuborishdi.
7 Shogirdlar xo‘tikni Isoning oldiga olib kelishdi. Xo‘tik ustiga to‘nlarini tashlashdi, Iso xo‘tikka mindi. 8 Ko‘pchilik to‘nlarini yo‘lga poyandoz qilib yoydi. Boshqalar esa dashtdagi yashil novdalarni kesib, yo‘lga to‘shadilar. 9 Oldinda va orqada yurayotganlar shunday deb hayqirishardi:

“Tasanno!
Egamiz nomidan kelayotgan Inson baraka topsin!*
10 Bobomiz Dovudning yaqinlashgan shohligi muborak bo‘lsin!
Falak toqida Unga tasanno o‘qilsin!”

11 Iso Quddusga kirib, Ma’badga bordi, hamma narsani ko‘zdan kechirdi. Kun kech bo‘lib qolganidan, Iso o‘n ikki shogirdi bilan Baytaniya qishlog‘iga qaytib ketdi.

Qurib qolgan anjir daraxti

12 Ertasi kuni ular Baytaniyadan chiqqanlarida, Isoning qorni och edi. 13 U uzoqdan barglar bilan qoplangan bir anjir daraxtini ko‘rib qoldi, daraxtdan biron anjir topa olarmikanman, deb bordi. Daraxtning yoniga kelib, bargdan boshqa hech narsa topolmadi, chunki hali anjir terish vaqti emas edi. 14 Iso daraxtga qarab:

— Bundan keyin to abad sening mevangni hech kim yemasin! — dedi.

Shogirdlari ham bu gapni eshitishdi.

Iso oldi–sotdi qiluvchilarni Ma’baddan quvadi

15 So‘ng ular Quddusga kelishdi. Iso Ma’badga kirib, ichkarida oldi–sotdi qilayotganlarni quvib chiqara boshladi. Sarroflarning* xontaxtalarini, kaptar sotuvchilarning kursilarini ag‘darib yubordi. 16 Sotiladigan molni Ma’bad ichidan olib o‘tishga* hech kimga ijozat bermadi.

17 Iso xalqqa ta’lim berayotib dedi:

— Tavrotda yozilgan–ku: “Mening uyim barcha xalqlarning ibodat uyi deb ataladi.”* Sizlar esa Xudoning uyini qaroqchilar uyasiga* aylantirib yuboribsizlar!

18 Bosh ruhoniylar va Tavrot tafsirchilari buni eshitib, Isoni halok qilish payiga tushdilar. Butun xalq Isoning ta’limotiga mahliyo bo‘lgani uchun bosh ruhoniylar bilan tafsirchilar Undan qo‘rqib qoldilar.

19 Kech kirgach, Iso shogirdlari bilan shahardan tashqariga chiqib ketdi.

Ibodat va ishonch haqida

20 Erta bilan ular yana anjir daraxti yonidan o‘tib qarashsa, daraxt ildizigacha qurib qolgan ekan. 21 Butrus bo‘lgan hodisani eslab, Isoga dedi:

— Ustoz! Qarang, Siz la’natlagan anjir daraxti qurib qolibdi.

22 Iso bunga javoban dedi:

23 — Xudoga ishonchingiz bo‘lsin. Sizlarga chinini aytayin: agar kimki bu toqqa: “Qo‘porilib dengizga otil”, desa–yu, o‘z qalbida shubhalanmay, aytgani bajo kelishiga qattiq ishonsa, aytgani bo‘ladi. 24 Binobarin, sizlarga aytaman: siz ibodatda nimaiki so‘rasangiz, oldim, deb ishoninglar va sizga beriladi. 25-26 Ibodat qilib turganingizda birovda ginangiz bo‘lsa, uni kechirib yuboring, toki osmondagi Otangiz ham sizlarning gunohlaringizni kechirsin*.

Isoning hokimiyati haqida savol

27 Ular yana Quddusga keldilar. Iso Ma’badda aylanib yurgan edi, bosh ruhoniylar, Tavrot tafsirchilari va yo‘lboshchilar Uning oldiga kelib 28 so‘radilar:

— Siz bu ishlarni qanday hokimiyat bilan qilyapsiz? Bularni qilish uchun Sizga kim hokimiyat bergan?

29 Iso ularga shunday javob berdi:

— Men sizlarga bir savol beray. Menga javob bersangizlar, Men ham bu ishlarni qanday hokimiyat bilan qilayotganimni sizlarga aytaman. 30 Yahyo xalqni suvga cho‘mdirish huquqini Xudodan olganmidi yoki insondanmi? Javob beringlar Menga.

31 Ular o‘zlaricha mulohaza yurita boshladilar:

— Agar: “Xudodan”, — desak, U: “Nega Yahyoga ishonmadingizlar?” — deydi.

32 Agar: “Insondan”, — desak–chi?

Vaholanki, ular olomondan qo‘rqardilar, chunki hamma Yahyoni haqiqiy payg‘ambar deb hisoblardi. 33 Xullas, ular Isoga:

— Bilmaymiz, — deb javob berdilar. Iso ularga dedi:

— Unday bo‘lsa, Men ham bu ishlarni qaysi hokimiyat bilan qilayotganimni sizlarga aytmayman.

12–BOB

Yovuz bog‘bonlar haqida masal

1 Iso xalqqa masallar orqali so‘zlay boshladi:

“Bir odam uzumzor barpo qilibdi. Atrof–tevaragini devor bilan o‘rab, uzum siqish chuqurini* qazibdi, kuzatuv minorasini quribdi. Keyin uzumzorni bog‘bonlarga ijaraga berib, o‘zi safarga ketibdi.

2 Yig‘im–terim mavsumida, uzumzor hosilidan tegishli ulushini olish uchun o‘sha odam xizmatkorini bog‘bonlar oldiga yuboribdi. 3 Bog‘bonlar esa uni tutib olishibdi, kaltaklab, qup–quruq qaytarib yuborishibdi. 4 Uzumzor egasi yana boshqa bir xizmatkorini ularning oldiga yuboribdi. Ular bunisini ham boshiga urib, haqorat qilibdilar*. 5 Yana boshqasini yo‘llabdi, unisini esa o‘ldirishibdi. U yana xizmatkorlarini yuboraveribdi, ammo bog‘bonlar ularning ba’zilarini urib, ba’zilarini o‘ldirishibdi.

6 Uzumzor egasining endi birgina odami qolibdi, u ham bo‘lsa, sevikli o‘g‘li ekan. U: «O‘g‘limni hurmat etarlar» deb, bog‘bonlar oldiga uni yuboribdi. 7 Lekin ular bir–biriga:

— Bu merosxo‘r–ku! Uni o‘ldiraylik, shunda merosi bizga qoladi, — deyishibdi.

8 O‘g‘lini ushlab, o‘ldirib, jasadini uzumzordan chiqarib tashlashibdi.

9 Xo‘sh, sizningcha, endi uzumzor egasi nima qilar ekan? U kelib bog‘bonlarni o‘ldiradi, uzumzorni esa boshqalarga ijaraga beradi.

10 Nahotki sizlar Muqaddas bitiklardagi ushbu so‘zlarni hech o‘qimagan bo‘lsangiz:

«Binokorlar rad etgan tosh
Binoning tamal toshi* bo‘ldi.
11 Bu Egamizning qilgan ishidir,
Ko‘z oldimizdagi ajoyibotdir.»”*

12 Iso aytgan bu masal yahudiy yo‘lboshchilarga qarshi qaratilgan edi. Ular buni anglab yetdilar–u, Isoni qo‘lga olmoqchi bo‘ldilar. Ammo xalqdan qo‘rqqanlari uchun Unga qo‘l tekkizmay ketib qoldilar.

Xudoning haqi Xudoga

13 Isoni tilidan ilintirish uchun Uning oldiga farziylardan va Hirod tarafdorlaridan* ba’zilarini yubordilar. 14 Ular kelib dedilar:

— Ustoz, odil ekaningizni bilamiz. Siz biror kishiga xushomadgo‘ylik qilmaysiz.

Odamlarga yuz–xotir qilmasdan, Xudoning yo‘lini to‘g‘ri o‘rgatasiz. Ayting–chi, Qaysarga* soliq to‘lashimiz* to‘g‘rimi yoki yo‘qmi? Biz soliq to‘laylikmi yoki to‘lamaylikmi?

15 Iso ularning ikkiyuzlamachiligini bilar edi.

— Nima, Meni sinab ko‘rmoqchimisizlar? Menga bir dinor* olib kelinglar, uni bir ko‘rayin, — dedi.

16 Ular olib kelgach, Iso so‘radi:

— Bu tangadagi surat va yozuv kimniki?

— Qaysarniki, — dedi ular. 17 Iso ularga:

— Qaysarning haqini Qaysarga, Xudoning haqini Xudoga beringlar, — dedi.

Buni eshitganlar hayratda qoldilar.

Qiyomat haqida savol

18 Sadduqiylar* o‘liklarning tirilishini inkor etardilar. Ularning ba’zilari Isoning oldiga kelib, xalq oldida Unga shunday savol berdilar:

19 — Ustoz! Muso bizga shunday yozib qoldirgan*: agar birovning akasi farzand ko‘rmay o‘tib ketsa, ukasi akasining xotiniga uylanib, akasi uchun farzandni dunyoga keltirsin. 20 Xo‘sh, yetti aka–uka bo‘lgan ekan. Birinchisi uylanibdi, so‘ng nasl qoldirmay o‘lib ketibdi. 21 Ikkinchisi ham o‘sha xotinni olib, farzand ko‘rmay olamdan o‘tibdi. Uchinchisi ham shu ko‘yga tushibdi. 22 Shuningdek, aka–ukalarning yettovi ham farzand ko‘rmay olamdan o‘tibdi. Oxirida xotin ham qazo qilibdi. 23 Ayting–chi, Xudo odamlarni tiriltirganda xotin qaysi birining xotini hisoblanadi? Yettovi ham unga uylangan edilar–ku!

24 Iso ularga shunday javob berdi:

— Sizlar Muqaddas bitiklarni* ham, Xudoning qudratini ham bilmaysizlar, ana shu sababdan adashyapsizlar. 25 O‘liklar tirilganda uylanmaydilar, erga ham tegmaydilar, balki bamisoli samodagi farishtalarday bo‘ladilar. 26 O‘liklarning tirilishi haqidagi masalaga kelsak: nahotki sizlar hech qachon Musoning kitobini o‘qimagan bo‘lsangizlar?! Yonayotgan buta to‘g‘risidagi voqeada* Xudo Musoga: “Men Ibrohim, Is’hoq va Yoqubning Xudosiman”, — degan–ku! 27 Axir, Xudo o‘liklarning emas, tiriklarning Xudosidir. Sizlar nihoyatda adashyapsizlar.

Eng muhim ilohiy amr

28 Tavrot tafsirchilaridan biri ularning munozara qilayotganini eshitib, Isoning ularga yaxshi javob berib turganini ko‘rdi. U Isoning oldiga kelib:

— Amrlarning eng muhimi qaysi biri? — deb so‘radi. 29 Iso unga javob berib dedi:

— Eng muhim amr shudir: “Ey Isroil, quloq sol! Egamiz Xudo tanho Egadir*. 30 Egangiz Xudoni butun qalbingiz bilan, jonu dilingiz bilan, butun ongingiz bilan, kuchingiz boricha seving.”* 31 Eng muhim amrlardan ikkinchisi: “O‘zgani o‘zingizni sevganday seving.”* Bulardan buyukroq amr yo‘q.

32 — Yaxshi gapirdingiz, Ustoz, — dedi Isoga tafsirchi. — Xudo tanhodir, Undan boshqa Xudo yo‘q, deb to‘g‘ri aytdingiz. 33 Uni butun qalbimiz, butun idrokimiz bilan, kuchimiz boricha* sevishimiz kerak. O‘zgani ham o‘zimizni sevganday sevishimiz kerak. Kuydiriladigan va boshqa qurbonliklar keltirishdan bu a’loroqdir.

34 Iso uning oqilona javob berganini ko‘rib:

— Siz Xudoning Shohligidan uzoqda emassiz, — dedi.

Shundan keyin hech kim Isoga savol berishga jur’at etmadi.

Masih kimning o‘g‘li?

35 Iso Ma’badda ta’lim berayotib, shunday savol berdi:
— Qanday qilib Tavrot tafsirchilari Masihni Dovudning O‘g‘li* deydilar?
36 Dovudning o‘zi Muqaddas Ruh ilhomi bilan deganki:

> “Egamiz aytmoqda Rabbimga:
> Dushmanlaringni oyoqlaring ostiga yiqitmagunimcha,
> Sen Mening o‘ng tomonimda* o‘tirgin.”*

37 Demak, Dovudning o‘zi Masihni Rabbim deb atagan bo‘lsa, qanday qilib Masih Dovudning O‘g‘li bo‘ladi?!
Bir talay olomon Isoni ishtiyoq bilan tinglar edi.

Iso soxta dindorlik to‘g‘risida ogohlantiradi

38 Iso xalqqa nasihat qilib, yana shunday dedi:
— Tavrot tafsirchilaridan ehtiyot bo‘linglar! Ular uzun kiyimlar kiyishni yaxshi ko‘radilar, bozorlarda yurganda ularga salom berishlarini, 39 sinagogalarda yaxshi joylarda o‘tirishni, ziyofatlarda to‘rda o‘tirishni yoqtiradilar. 40 Ammo beva ayollarning uy–joylarini tortib oladilar, xo‘ja ko‘rsinga uzoq duo o‘qiydilar. Bunday odamlar nihoyatda qattiq jazoga mubtalo bo‘ladilar.

Beva ayolning xayr–ehsoni

41 Iso Ma’bad xazinasi qarshisida o‘tirib, ehson qutisiga pul solayotgan odamlarni kuzatib turdi. Ko‘p boylar anchagina pul tashladilar. 42 Bir kambag‘al beva ayol ham kelib, qiymati bir tiyinga to‘g‘ri keladigan ikki chaqa* tashladi.
43 Shunda Iso shogirdlarini yoniga chaqirib dedi:
— Sizlarga chinini aytayin, bu kambag‘al beva ayol xazinaga pul tashlaganlarning hammasidan ham ko‘proq tashladi. 44 Chunki boylarning hammasi o‘zlarining ortiqcha pullaridan ehson qildilar. Bu ayol esa kambag‘alligiga qaramasdan, o‘zining bor–yo‘g‘ini, ro‘zg‘origa ishlatiladigan hamma pulini tashladi.

13–BOB

Iso oxirzamon haqida gapiradi

1 Iso Ma’baddan chiqib ketayotganda shogirdlaridan biri:
— Ustoz, qarang, naqadar ulkan toshlar, naqadar hashamatli binolar! — dedi. 2 Iso unga:
— Bu hashamatli binolarni ko‘ryapsanmi? Bularning hammasi vayron bo‘ladi*. Bu yerda tosh ustida turgan bironta tosh qolmaydi, — dedi.
3 Iso Zaytun tog‘ida*, Ma’badning ro‘parasida o‘tirgan vaqtda Butrus, Yoqub, Yuhanno va Endrus Undan alohida so‘radilar:
4 — Bizga ayting–chi, bu hodisalar qachon yuz beradi? Tez orada sodir bo‘lishini nimadan bilsak bo‘ladi?
5 Iso ularga shunday javob berdi: “Ehtiyot bo‘linglar, hech kim sizlarni yo‘ldan ozdirmasin! 6 Ko‘p kishilar o‘zlarini Mening nomim bilan atab: «Men O‘shaman», deb

koʻplarni yoʻldan ozdiradilar. 7 Sizlar uzoq–yaqindagi urush xabarlarini eshitganingizda,
choʻchimanglar. Bular albatta sodir boʻladi, ammo bu hali oxiri degani emas. 8 Xalq
xalqqa qarshi, shohlik shohlikka qarshi koʻtariladi. Ayrim joylarda qahatchilik va
zilzilalar boʻladi. Bu hodisalar toʻlgʻoq azoblarining boshlanishiga oʻxshaydi.
9 Sizlar esa oʻzingizga ehtiyot boʻlinglar. Chunki sizlarni mahkamalarga topshirib,
sinagogalarda uradilar. Men tufayli sizlarni hokimlar va shohlar huzurida turgʻizib
qoʻyadilar, sizlar esa Mening shohidlarim boʻlasizlar. 10 Ammo oxirat kelishidan oldin,
Xushxabar hamma xalqlarga e'lon qilinishi lozim.
11 Sizlarni qoʻlga olib, mahkamaga topshirganlarida, nima aytamiz, deb oldindan
xavotir olmanglar. Oʻsha soatda sizlarga nima berilsa, oʻshani aytinglar. Chunki oʻshanda
sizlar emas, balki Muqaddas Ruh gapiradi. 12 Aka ukasini, ota bolasini oʻlimga topshiradi.
Bolalar oʻz ota–onalariga qarshi chiqib, ularni oʻldirtiradilar. 13 Mening nomim tufayli
hamma sizlardan nafratlanadi. Lekin oxirigacha bardosh bergan najot topadi.

Buyuk musibat va Isoning kelishi

14 Koʻp harom–xarish ishlarga sabab boʻladigan makruh bir narsaning* man etilgan
joyga oʻrnatilganini koʻrganingizda — oʻqigan tushunib olsin! — Yahudiyada boʻlganlar
togʻlarga qochishsin. 15 Tomning ustida boʻlganlar* pastga tushib, uyidan biron narsa
olib kelish uchun uyiga kirishmasin. 16 Dalada boʻlganlar esa toʻnini olgani qaytib
kelmasin. 17 U kunlarda homilador va emizikli ayollarning holiga voy! 18 Qochishingiz
qishga toʻgʻri kelmasligi uchun iltijo qilinglar. 19 Chunki oʻsha kunlarda shunday azob–
uqubatlar boʻladiki, Xudo dunyoni yaratganidan to hozirgacha bunday boʻlmagan va
qaytib sodir boʻlmaydi. 20 Agar Egamiz oʻsha kunlarni qisqartirmaganda edi, hech bir
jonzot omon qolmas edi. Lekin Xudo tanlagan odamlari uchungina oʻsha kunlarni
qisqartiradi.
21 Agar oʻshanda kimdir sizlarga: «Masih mana bu yerda» yoki: «Ana u yerda», deb
aytsa, ishonmanglar. 22 Chunki soxta masihlar va soxta paygʻambarlar paydo boʻlib, iloji
boʻlsa, tanlangan odamlarni yoʻldan ozdirish uchun alomatu moʻjizalar koʻrsatadilar.
23 Sizlar esa ehtiyot boʻlinglar. Men hammasini sizlarga oldindan aytib qoʻydim.
24 Oʻsha kunlarda, azob–uqubatlardan keyin,

> «Quyosh qorayadi, oyning nuri soʻnadi.
> 25 Osmondan yulduzlar qulab tushadi,
> Samoviy kuchlar larzaga keladi.»*

26 Shunda hamma odam Inson Oʻgʻlini koʻradi. Inson Oʻgʻli buyuk qudrat va
ulugʻvorlikka burkanib, bulutlarda keladi*. 27 U farishtalarini yerning toʻrt tomoniga
yuborib, dunyoning bir burchagidan tortib, narigi burchagigacha tanlagan odamlarini
toʻplab oladi.

Hushyor boʻlish haqida

28 Anjir daraxtidan saboq olinglar: uning shoxlari koʻkarib barg chiqarayotganda, yoz
yaqinlashganini bilasizlar. 29 Shu singari, mana bu voqealar sodir boʻlganda, bilingki,
oʻsha vaqt* yaqinlashib qolgan, ostonangizga yetgan. 30 Sizlarga chinini aytayin: bu nasl
oʻtmasdanoq, bularning hammasi sodir boʻladi. 31 Yeru osmon yoʻq boʻlib ketadi, ammo
Mening soʻzlarim kuchda qoladi.

32 O‘sha kun yoki soat haqida samoviy Otamdan boshqa hech kim bilmaydi. O‘g‘il
ham, samodagi farishtalar ham bilmaydilar. 33 Ehtiyot bo‘lib, hushyor turinglar*, chunki
o‘sha vaqt–soat qachon kelishini sizlar bilmaysizlar.
34 Bu xuddi safarga jo‘nagan uy egasiga o‘xshaydi. U o‘z uy–ro‘zg‘orini
xizmatkorlariga topshirib, har biriga vazifa berib, darvozabonga hushyor bo‘lib turishni
buyurib, jo‘nab ketadi. 35 Xuddi shu singari, sizlar ham hushyor bo‘lib turinglar. Chunki
uy egasi qachon kelishini — kechqurunmi, yarim tundami, xo‘rozlar qichqirgandami
yoki ertalabmi — sizlar bilmaysizlar. 36 Tag‘in U nogahon kelib, sizlarni uxlab yotgan
holda ko‘rmasin! 37 Sizlarga aytganimni hammaga aytaman: hushyor bo‘linglar!”

14–BOB

Isoni o‘ldirish rejasi

1 Fisih ziyofatiga va Xamirturushsiz non bayramiga* ikki kun qolgan edi. Bosh
ruhoniylar va Tavrot tafsirchilari Isoni hiyla bilan tutib, o‘ldirish uchun fursat poylab
yurgan edilar. 2 Ular: “Biz bu ishni bayram kunlari qilmasligimiz kerak, aks holda, xalq
g‘alayon ko‘tarishi mumkin”, dedilar.

Isoga sunbul moyi quygan ayol

3 Iso Baytaniya qishlog‘ida* ilgari teri kasalligiga* chalingan Shimo‘nning* uyida
mehmon bo‘lib o‘tirgan edi. Shunda bir ayol ganchdan* yasalgan idishda toza,
qimmatbaho sunbul moyi* olib keldi. Idishni sindirib ochib, moyni Isoning boshidan
quydi. 4 Ba’zilar bundan g‘azablanib, bir–biriga:
— Moyni bunday isrof etishning nima keragi bor edi?! 5 Axir, uni uch yuz kumush
tangadan* ham ko‘proqqa sotib, kambag‘allarga taqsimlab berish mumkin edi–ku! —
deb ayolni qattiq koyishdi.
6 — Qo‘yinglar uni! — dedi Iso. — Nega ayolni xijolatda qoldiryapsizlar? U Men
uchun ajoyib ish qildi. 7 Kambag‘allar har doim sizlar bilan birga bo‘ladilar. Istagan
vaqtingizda ularga yordam bera olasizlar. Lekin Men sizlar bilan doimo birga
bo‘lmayman. 8 Bu ayol qo‘lidan kelganini qildi. U Mening tanamga xushbo‘y moy surtib,
oldindan dafnga tayyorladi*. 9 Sizlarga chinini aytayin: Xushxabar dunyoning qaysi
yerida e’lon qilinmasin, bu ayol ham esga olinib, uning qilgan ishi haqida aytiladi.
10 Shunda o‘n ikki shogirddan biri bo‘lgan Yahudo Ishqariyot bosh ruhoniylarning
oldiga borib, Isoni sizlarga tutib beraman, dedi. 11 Bosh ruhoniylar bu gapni eshitib, juda
xursand bo‘ldilar, Yahudoga pul berishni va’da qildilar. Shunday qilib, Yahudo Isoni
tutib berish uchun qulay vaqtni kuta boshladi.

Qutlug‘ kecha va Isoga xiyonat

12 Xamirturushsiz non bayramining birinchi kunida, Fisih qo‘zisi so‘yiladigan paytda
shogirdlar Isodan so‘radilar:
— Fisih taomini qayerda yemoqchisiz? Biz borib tayyorgarlik ko‘raylik.
13 Iso shogirdlaridan ikkitasini yuborayotib, ularga dedi:
— Quddusga boringlar, u yerda ko‘zada suv ko‘tarib ketayotgan bir odamni
uchratasizlar. Uning orqasidan boringlar. 14 U kiradigan xonadon egasiga shunday deb
aytinglar: “Ustozimiz shogirdlari bilan Fisih taomini yemoqchilar. U sizdan: «Bizga
tayyorlab qo‘yilgan mehmonxona qayerda?» deb so‘rab yubordilar.” 15 Uy egasi sizlarga

jihozlangan, tayyorlab qo‘yilgan katta boloxonani ko‘rsatadi. U yerda biz uchun hozirlik ko‘ringlar.

16 Shogirdlar jo‘nashdi. Shaharga kirganlarida, xuddi Isoning aytganini topdilar va
Fisih taomini tayyorladilar. 17 Kech kirganda, Iso o‘n ikki shogirdi bilan birga u yerga
keldi.

18 Ular ovqatlanib o‘tirganlarida Iso shunday dedi:

— Sizlarga chinini aytayin, Men bilan taom yeyayotgan kishi Menga xiyonat qiladi. U sizlarning orangizdadir.

19 Shogirdlar xafa bo‘lib, birin–ketin:

— Nahotki o‘sha men bo‘lsam? — deb Undan so‘ray boshladilar.

20 Iso ularga javoban dedi:

— U o‘n ikkitangizdan bittasi, Men bilan baravar kosaga nonni botirgan — o‘shadir.
21 To‘g‘ri, Inson O‘g‘li U haqda yozilganday jon beradi. Lekin Inson O‘g‘liga xiyonat qilgan odamning holiga voy! Uning tug‘ilganidan ko‘ra, tug‘ilmagani yaxshiroq edi.

22 Ular ovqatlanayotganda, Iso nonni oldi, duo o‘qib sindirdi. Nonni shogirdlariga berib:

— Olinglar, bu Mening tanamdir, — dedi. 23 Sharob quyilgan kosani ham oldi, shukrona duosini o‘qib ularga uzatdi. Hammalari undan ichdilar. 24 Iso ularga dedi:

— Bu sharob Xudoning ahdini* bildiradi. Bu ahd ko‘plar uchun to‘kiladigan qonim evaziga kuchga kiradi. 25 Sizlarga chinini aytayin: Xudoning Shohligida Men yangi sharob ichadigan kungacha uzum ne’matini og‘zimga ham olmayman.

26 So‘ng ular hamdu sano kuylab, Zaytun tog‘i* tomon ketdilar.

Butrusning Isodan tonishi haqida bashorat

27 Iso shogirdlariga dedi:

— Hammalaringiz Meni tashlab, qochib ketasizlar. Chunki yozilgan:

> “Men cho‘ponni o‘ldiraman,
> Shunda qo‘ylar har yoqqa tarqalib ketadi.”*

28 Biroq Men tirilganimdan keyin, sizlarni Jalilada kutaman.

29 Butrus Isoga dedi:

— Sizni hamma tashlab ketsa ham, men Sizni tashlab ketmayman!

30 Iso unga:

— Senga chinini aytayin, bugun, shu kechasiyoq, xo‘roz ikki marta qichqirmasdan oldin, sen Mendan uch marta tonasan, — dedi.

31 Lekin Butrus o‘z gapida qattiq turib oldi:

— Kerak bo‘lsa, Siz bilan birga o‘laman! Ammo Sizdan aslo tonmayman! — dedi.
Boshqa hamma shogirdlar ham shunday deyishdi.

Isoning bog‘dagi ibodati

32 Ular Getsemaniya* degan joyga bordilar. Iso shogirdlariga:

— Men ibodat qilayotganimda, sizlar shu yerda o‘tirib turinglar, — dedi.

33 U yoniga Butrusni, Yoqub va Yuhannoni oldi. Isoni qayg‘u, g‘am bosib kela
boshladi. 34 U shogirdlariga:

— Yuragimdagi og‘ir qayg‘u Meni o‘lguday qiynab yubordi. Shu yerda qolinglar–da,

koʻz–quloq boʻlib turinglar, — dedi.
35 Bir oz nari ketib yerga muk tushdi: “Agar iloji boʻlsa, bu lahza Meni chetlab oʻtsin”,
deb ibodat qildi. 36 U shunday deb yolvordi:
— Otajon!* Sen uchun hamma narsaning imkoni bor! Bu azob kosasini* Mendan
uzoqlashtir. Ammo Mening xohishim emas, Sening xohishing bajo boʻlsin.
37 Iso qaytib kelib, shogirdlarining uxlab yotganini koʻrdi. Butrusga dedi:
— Shimoʻn!* Uxlayapsanmi? Bir soatgina ham uygʻoq oʻtira olmadingmi? 38 Koʻz–
quloq boʻlib turinglar, vasvasaga tushib qolmaylik, deb ibodat qilinglar*. Ruh tetik, tana
esa zaifdir.
39 Iso yana borib, oʻsha soʻzlarni aytib ibodat qildi. 40 U qaytib kelib, shogirdlarining
yana uxlab yotganini koʻrdi. Ularning koʻzlari yumilib ketavergan edi. Ular Isoga nima
deb aytishni bilmay qoldilar.
41 Uchinchi marta borib kelib, Iso shogirdlariga dedi:
— Haligacha dam olib, uxlab yotibsizlarmi?! Boʻldi, vaqt–soati keldi! Inson Oʻgʻli
gunohkorlar qoʻliga tutib berilyapti. 42 Turinglar, ketaylik! Ana, Menga xoinlik qiluvchi
kelyapti!

Iso hibsga olinadi

43 Iso hali gapini tugatmagan ham ediki, Yahudo kelib qoldi. U oʻn ikki shogirddan
biri boʻlib, uning yonida qilich va tayoq koʻtarib olgan olomon bor edi. Bu olomonni bosh
ruhoniylar, Tavrot tafsirchilari va yoʻlboshchilar yuborgan edilar. 44 Xoin Yahudo
olomon bilan til biriktirib, shunday degandi: “Men kimni oʻpsam, U oʻsha Kishidir. Uni
qoʻlga olinglar, qoʻriqlab olib ketinglar.”
45 Yahudo toʻppa–toʻgʻri Isoning oldiga borib:
— Ustoz! — deb Uni oʻpdi.
46 Shu zahotiyoq odamlar Isoni ushlab, qoʻlga oldilar. 47 Oʻsha yerda turganlardan biri
qilichini qinidan sugʻurdi–da, oliy ruhoniyning xizmatkoriga bir urib, qulogʻini kesib
tashladi.
48 Iso ularga dedi:
— Sizlar Meni qoʻlga olish uchun qoʻzgʻolonchiga qarshi chiqqandek qilichu tayoqlar
bilan qurollanib kelibsizlar. 49 Men har kuni Ma’badda sizning orangizda edim, ta’lim
berardim. Sizlar oʻshanda Meni qoʻlga olmadingizlar. Ammo bular Muqaddas bitiklarda*
aytilganlar bajo boʻlishi uchun roʻy berdi.
50 Oʻshanda hamma shogirdlari Isoni tashlab, qochib ketishdi. 51 Bir yosh yigit Isoga
ergashib ketayotgan edi. U zigʻir matosiga oʻranib olgan, boshqa kiyimi yoʻq edi.
Odamlar oʻsha yigitni ham ushlagan edilar, 52 u zigʻir matosini tashlab, yalangʻoch
holicha qochib ketdi.

Iso yahudiylarning Oliy kengashi oldida

53 Isoni oliy ruhoniyning oldiga olib keldilar. Bosh ruhoniylar, yoʻlboshchilar va
Tavrot tafsirchilarining hammasi yigʻilgan edilar. 54 Butrus esa Isoning orqasidan
masofa saqlab ergashib kelib, oliy ruhoniyning hovlisiga kirdi. U soqchilar bilan birga
olov yonida oʻtirib, isindi.
55 Bosh ruhoniylar va Oliy kengashning* barcha a’zolari Isoni oʻlimga mahkum qilish
uchun Unga qarshi guvoh izlar edilar*, lekin topolmasdilar. 56 Koʻp odamlar Unga qarshi
soxta guvohlik berayotgan boʻlsalar–da, ammo bergan guvohliklari bir–biriga mos

kelmas edi. 57 Soxta guvohlardan ba’zilari so‘zga chiqib shunday der edilar:
58 — U: “Inson qo‘li bilan qurilgan bu Ma’badni Men buzib tashlayman–u, uch kunda inson qo‘llarisiz, boshqa bir Ma’badni tiklayman”, — deganini eshitgan edik*.
59 Lekin bu xususda ham guvohlarning bergan ma’lumotlari bir–biriga mos kelmas edi.
60 Bundan keyin oliy ruhoniy oldinga chiqib, Isoga:
— Indamay turaverasanmi?! Ularning Senga qo‘ygan ayblariga javob qaytarmaysanmi?! — dedi.
61 Iso esa indamadi, hech javob qaytarmadi. Oliy ruhoniy yana Undan so‘radi:
— Muborak Xudoning O‘g‘li* — Masih Senmisan?
62 Iso dedi:
— Men O‘shaman. Sizlar Inson O‘g‘lini Qodir Xudoning o‘ng tomonida o‘tirganini* va osmon bulutlarida kelayotganini ko‘rasizlar*.
63 Shundan keyin oliy ruhoniy o‘z kiyimlarini yirtib* dedi:
— Bizlarga boshqa guvohlarning nima keragi bor?! 64 Uning kufr ketganini o‘zlaringiz eshitdingizlar. Sizlarning qaroringiz qanday?
Hammalari Uni o‘limga loyiq deb topishdi. 65 Ba’zilar Unga tupurishdi. Uning yuz–ko‘zini bog‘lab, mushtlashdi: “Payg‘ambar, qani, top–chi, Seni kim urdi ekan?” deb aytishdi. Soqchilar ham Uni olib ketib, urdilar.

Butrus Isodan tonadi

66 Butrus pastdagi hovlida ekan, oliy ruhoniyning bir cho‘risi kelib qoldi. 67 Isinib turgan Butrusni ko‘rib, unga tikilib qaradi–da:
— Siz ham o‘sha Nosiralik Iso bilan birga edingiz–ku! — dedi. 68 Lekin Butrus inkor etib:
— Nima deyapsan o‘zi, tushunmayapman, — dedi–yu, boshqa yoqqa, tashqi hovliga chiqib ketdi. Shu payt xo‘roz qichqirdi.
69 Cho‘ri uni yana uchratib, u yerda turganlarga:
— Bu odam o‘shalardan biri, — deb yana aytdi.
70 Butrus yana inkor etdi.
Bir ozdan keyin u yerda turganlar yana Butrusga gapira boshlashdi:
— Sen Jalilaliksan–ku!* O‘shalardan biri ekanliging aniq*.
71 — Xudo ursin! Sizlar aytayotgan bu Odamni men tanimayman! — deb qasam ichdi Butrus.
72 Naq shu payt xo‘roz ikkinchi marta qichqirdi. Isoning: “Xo‘roz ikki marta qichqirmasdan oldin, sen Mendan uch marta tonasan” degan so‘zi Butrusning esiga tushib ketdi. U chidolmay yig‘lab yubordi.

15–BOB

Iso Pilat huzurida

1 Tong otar–otmas, bosh ruhoniylar, yo‘lboshchilar, Tavrot tafsirchilari va Oliy kengashning qolgan a’zolari bir qarorga kelishdi. Ular Isoni bog‘latib, hokim Pilatga* olib borib topshirishdi. 2 Pilat Isodan:
— Sen yahudiylarning Shohimisan? — deb so‘radi.
— Siz shunaqa deysiz, — deb javob berdi Iso.

3 Bosh ruhoniylar Uni koʻp masalada ayblayotgan edilar. 4 Pilat yana Unga:
— Sen hech narsaga javob bermaysanmi? Koʻryapsan–ku, ular Seni koʻp jinoyatlarda ayblashyapti! — dedi. 5 Lekin Iso boshqa hech javob bermadi. Pilat bunga qoyil qoldi.
6 Har Fisih bayramida* Pilat xalqning iltimosiga binoan bir mahbusni ozod qilar edi.
7 Isyon* vaqtida qotillik qilgan Barabbas ismli bir kishi oʻz sheriklari bilan oʻshanda qamoqda edi. 8 Xalq yana kelib, Pilatdan odatdagiday bir mahbusni ozod qilishni soʻray boshladi.
9-10 Bosh ruhoniylar Isoni hasad tufayli qoʻlga tushirishganini bilgan Pilat olomondan:
— Sizlar uchun yahudiylarning Shohini ozod qilishimni istaysizlarmi? — deb soʻradi.
11 Ammo bosh ruhoniylar: “Uning oʻrniga Barabbasni ozod qilishni Pilatdan soʻranglar”, deb olomonni qoʻzgʻadilar. 12 Pilat ularga yana dedi:
— Aytinglar xohishingizni! Sizlar “Yahudiylar Shohi” deb ataydigan Kishini nima qilay?
13 — Xochga mixlansin! — deb shovqin soldi olomon. 14 Pilat ulardan:
— Nimaga? U nima yomonlik qildi? — deb soʻradi. Lekin olomon:
— Xochga mixlansin! — deb battar baqirardi.
15 Shundan keyin Pilat xalqni mamnun qilay deb, Barabbasni ozod etdi. Isoni esa qamchilatib, xochga mixlashni buyurdi.

Askarlar Isoni haqorat qilishadi

16 Rim askarlari Isoni hukumat saroyining hovlisiga olib borib, butun boʻlinmani Uning oldiga toʻplashdi. 17 Unga safsar toʻn kiydirishdi va tikanlardan toj oʻrib boshiga qoʻyishdi.
18 — Yashavor, ey yahudiylarning Shohi! — deb Uni qutlay boshlashdi. 19 Qamish bilan Uning boshiga qayta–qayta urib, tupurishdi. Uning oldida tiz choʻkib, ta’zim qilishdi. 20 Uni shunday masxara qilganlaridan keyin, ustidan safsar toʻnni yechib olib, Oʻzining kiyimlarini kiydirishdi. Soʻng Uni xochga mixlash uchun olib ketishdi.

Iso xochga mixlanadi

21 Askarlar yoʻlda Shimoʻn degan odamni uchratib qoldilar. U daladan qaytib kelayotgan edi. Ular Shimoʻnni Isoning xochini* koʻtarib borishga majbur qildilar. Shimoʻn Kirineyalik* boʻlib, Iskandar va Rufusning otasi edi.
22 Askarlar Isoni Goʻlgota degan joyga olib kelishdi. Goʻlgota “bosh suyagi” ma’nosini beradi. 23 Isoga mirra aralashtirilgan sharob* berishdi, lekin U ichmadi. 24 Bundan soʻng Isoni xochga mixlab qoʻyishdi. Uning kiyimlarini esa oʻzaro boʻlishib, kim nima oladi, deb qur’a tashlashdi*.
25 Uni xochga mixlaganlarida ertalab soat toʻqqiz* edi. 26 Bosh tomonida: “Yahudiylarning Shohi” deb yozilgan aybnoma bor edi. 27-28 Iso bilan birga ikkita qaroqchini ham mixlagan edilar. Ularning biri Isoning oʻng tomonida, ikkinchisi esa chap tomonida edi*.
29 Oʻtib ketayotganlar boshlarini chayqab, Isoni haqoratlashardi*:
— Ey Ma’badni buzib, uch kun ichida tiklaydigan! 30 Oʻzingni Oʻzing qutqarib, xochdan tushib koʻr–chi!
31 Bosh ruhoniylar va Tavrot tafsirchilari ham ularga qoʻshilib, Isoni masxaralay ketishdi. Ular bir–biriga:

— U boshqalarni qutqarardi, O‘zini esa qutqara olmaydi! 32 Isroilning Shohi Masih
endi xochdan tushsin, toki biz buni ko‘rib Unga ishonaylik! — deyishardi.
Iso bilan birga xochga mixlanganlar ham Uni haqoratlar edilar.

Iso jon beradi

33 Tush payti butun yurtni zulmat qopladi. Soat uchga* qadar hamma yoq zulmatga
cho‘mdi. 34 Soat uchda Iso baland ovoz bilan:
— Elohi, Elohi, lamo shavaqtani?* — deb faryod qildi. Bu so‘zning tarjimasi: “Ey
Xudoyim! Ey Xudoyim! Nega Meni tark etding?!”* demakdir.
35 U yerda turgan ba’zilar buni eshitib:
— Qarang, U Ilyosni* chaqiryapti, — deyishdi. 36 Shunda bir odam yugurib borib,
shimgichni arzon sharobga* botirib, qamishning uchiga ilib qo‘ydi–da, Isoga ichish
uchun uzatdi. So‘ng dedi:
— Qani, ko‘raylik–chi, Ilyos kelib*, Uni xochdan tushirarmikan?
37 Ammo Iso qattiq faryod qildi–yu, jon berdi. 38 Shu zahoti Ma’baddagi parda*
yuqoridan pastgacha yirtilib, ikkiga bo‘linib ketdi. 39 Isoning qarshisida turgan Rim
yuzboshisi Uning shu tarzda jon berganini ko‘rib:
— Haqiqatan ham bu Odam Xudoning O‘g‘li* ekan! — dedi.
40 U yerda uzoqdan qarab turgan ayollar bor edi. Ular orasida Magdalalik* Maryam,
kichik Yoqub bilan Yusufning onasi Maryam hamda Salomiya bor edilar. 41 Iso Jalilada
ekanligida, ular Unga xizmat qilib, ergashib kelgan edilar. U yerda Iso bilan birga
Quddusga kelgan boshqa ko‘p ayollar ham bor edi.

Iso dafn qilinadi

42 Juma kuni kech kirishiga oz qolgan*, Shabbat kuniga tayyorgarlik qilish vaqti
tugayotgan edi. 43 Shunda Oliy kengashning obro‘li a’zosi, Xudoning Shohligini intizorlik
bilan kutib yurgan Arimateyalik* Yusuf jur’at etib, Pilatning huzuriga bordi va Isoning
jasadini so‘radi. 44 Pilat Isoning darrov o‘lganiga hayron bo‘ldi. Yuzboshini chaqirib:
— Uning joni uzilib bo‘ldimi? — deb so‘radi. 45 Pilat Isoning o‘lganini yuzboshidan
bilib olgach, Uning jasadini Yusufga berdi.
46 Yusuf zig‘ir matosi sotib oldi. Jasadni xochdan tushirib olib, zig‘ir matosi bilan
kafanladi. Jasadni qoyada o‘yilgan qabrga qo‘ydi. Keyin qabrning og‘ziga bir toshni
yumalatib keltirib, qo‘yib ketdi. 47 Isoning jasadi qayerga dafn qilinganini Magdalalik
Maryam bilan Yusufning* onasi Maryam ko‘rdi.

16–BOB

Iso tiriladi

1 Shabbat kuni tugagach*, Magdalalik* Maryam, Yoqubning onasi Maryam va
Salomiya Isoning jasadiga surtish uchun xushbo‘y moylar sotib oldilar*. 2 Yakshanba
kuni juda barvaqt turib, tong yorishganda qabrga bordilar. 3 Ular bir–biriga:
— Qabr og‘zidagi toshni biz uchun kim ag‘darib berar ekan–a? — deb aytishardi.
4 Qabrga yetib kelganlarida qarashsa, tosh allaqachon ag‘darilgan ekan. Tosh juda
katta edi. 5 Ular qabr ichiga kirib, o‘ng tomonda o‘tirgan oq libosli bir yigitni ko‘rdilar–u,
cho‘chib ketdilar.
6 Yigit ularga:

— Qo‘rqmanglar! — dedi. — Sizlar xochga mixlangan Nosiralik Isoni izlayapsizlar. Iso tirildi! U bu yerda yo‘q. Mana Uning qo‘yilgan joyi! 7 Endi borib, Uning shogirdlari va Butrusga: “Iso sizlarni Jalilada kutyapti. O‘zi sizlarga aytganidek*, Uni o‘sha yerda ko‘rasizlar”, deb aytinglar.

8 Dahshatga tushib, qaltiragan ayollar qabrdan chiqib, qochdilar. Ular qo‘rqqanlaridan hech kimga biron narsa aytmadilar*.

Iso Magdalalik Maryamga zohir bo‘ladi

9 Yakshanba kuni erta saharda tirilgan Iso birinchi bo‘lib Magdalalik Maryamga zohir bo‘ldi. Bu ayoldan U yettita jinni quvib chiqargan edi. 10 Maryam borib, Isoning aza tutib yig‘layotgan shogirdlariga xabar yetkazdi. 11 Biroq ular Isoning tirik ekanligini va Maryam Uni ko‘rganligini eshitsalar ham, ishonmadilar.

Iso shogirdlariga zohir bo‘ladi

12 Shundan keyin Iso yo‘lda bir qishloq tomon ketayotgan ikkita shogirdiga boshqacharoq qiyofada ko‘rindi. 13 Ular esa qaytib kelib, boshqalarga xabar yetkazishdi, lekin ularga ham ishonmadilar.

14 Nihoyat, Iso O‘zining yeb–ichib o‘tirgan o‘n bir shogirdiga zohir bo‘ldi. Iso shogirdlarini imonlari zaifligi va qaysarligi uchun koyidi, chunki ular Isoni tirilgan holda ko‘rgan odamlarga ishonmagan edilar.

15 Iso shogirdlariga dedi:

— Butun jahon bo‘ylab yuringlar va hamma tirik jonga Xushxabarni e’lon qilinglar. 16 Kimki Xushxabarga ishonib, suvga cho‘mdirilsa, najot topadi. Ishonmagan esa mahkum bo‘ladi. 17 Quyidagi alomatlar imonlilarga hamroh bo‘ladi: Mening nomim bilan jinlarni quvib chiqaradilar. Yangi tillarda so‘zlaydilar. 18 Qo‘llariga ilon olsalar ham, zahar ichsalar ham, ularga zarar yetmaydi. Xastalarga qo‘llarini qo‘yganda, ular sog‘ayib ketadi.

Iso osmonga ko‘tariladi

19 Rabbimiz Iso shogirdlariga bularni aytib bo‘lgach, osmonga ko‘tarildi. U Xudoning o‘ng tomoniga o‘tirdi*. 20 Shogirdlar esa ketib, hamma yoqda Xushxabarni va’z qilib yurdilar. Rabbimiz shogirdlariga kuch ato qilib, alomatlar orqali ularning so‘zlarini tasdiqlar edi*.

IZOHLAR

Xudoning O‘g‘li — Iso Masihning unvoni. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi XUDONING O‘G‘LI iborasiga qarang.

1:1 *Xudoning O‘g‘li* — Iso Masihning unvoni. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi XUDONING O‘G‘LI iborasiga qarang.

1:2 *Mana…yo‘lni hozirlaydi* — Malaki 3:1 ga qarang.

1:3 Muallif bu o‘rinda Ishayo 40:3 ning qadimiy yunoncha tarjimasidan foydalangan.

1:4 *cho‘l* — Iordan daryosining O‘lik dengizga quyiladigan joyiga yaqin bo‘lgan, daryodan g‘arbda joylashgan yerlar.

1:4 *…va’z qila boshladi* — milodiy 28 yoki 29 yilda (Luqo 3:1-3 oyatlarga va Luqo 3:1 ning ikkinchi izohiga qarang).

1:6 *Yahyoning kiyimlari tuya junidan to‘qilgan…charm kamar…* — Ilyos payg‘ambar va boshqa payg‘ambarlar kiygan kiyimlar (4 Shohlar 1:8, Zakariyo 13:4 ga qarang).

1:11 *Sen Mening sevikli O‘g‘limsan* — Zabur 2:7 ga qarang.

1:11 *Sendan nihoyatda mamnunman* — Ishayo 42:1 ga qarang.

1:14 *Yahyo hibsga olingandan keyin…* — 6:17-18 ga qarang.

1:15 *Xudoning Shohligi* — Xudoning hozirgi paytda insonlar hayotidagi hukmronligi va oxiratda har bir yaratilgan mavjudotning yangilanishiga ishora. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi XUDONING SHOHLIGI iborasiga qarang.

1:16 *Shimo‘n* — Butrus ismi bilan ham tanilgan, Butrus ismini unga Iso qo‘ygan edi (3:16 ga qarang).

1:22 *Tavrot tafsirchilari* — Musoning qonunini juda yaxshi bilgan ziyoli odamlar. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi TAVROT TAFSIRCHISI iborasiga qarang.

1:22 *…U odamlarga Tavrot tafsirchilariday emas, balki hokimiyat egasi kabi ta’lim berar edi* — odatda Tavrot tafsirchilari ta’lim berganda o‘z ta’limotlarini asoslab berish maqsadida avval yashab o‘tgan e’tiborli, obro‘li muallimlarning so‘zlarini misol qilib keltirar edilar, ammo Iso bunday qilmagan.

1:32 *Quyosh botib kech kirgan paytda…* — yahudiylarning urf–odatiga ko‘ra, yangi kun quyosh botgandan keyin boshlanar edi. Matnda tasvirlangan payt Shabbat kunining yakuni va yakshanba kunining boshlanishi edi. Yahudiylarda yakshanba haftaning birinchi kuni hisoblanar edi.

1:40 *Teri kasalligi* — bu ibora yunonchada har xil teri kasalliklariga nisbatan ishlatilgan so‘zning tarjimasidir. Odatda bu ibora moxov kasalligiga ishora deb tushuniladi. Teri kasalliklaridan birortasiga yo‘liqqan kishi harom hisoblanar edi. Xasta odam kasalligini boshqalarga yuqtirmasligi va ularni harom qilmasligi uchun, boshqalardan ajratib qo‘yilar edi (Levilar 13:45-46 ga qarang).

1:43-44 *ruhoniy* — Quddusdagi Ma’badda xizmat qiladigan e’tiborli din rahnamosi. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi RUHONIY so‘ziga qarang.

1:43-44 *Poklanganingni hammaga isbot qilish uchun…* — yoki *Men Xudoning qonuniga jiddiy qarashimni ruhoniylar ko‘rishlari uchun….*

1:43-44 *…o‘zingni ruhoniyga ko‘rsat…Muso amr qilgan qurbonliklarni keltir* — Levilar 14:1-32 ga qarang.

2:2 *uy* — Butrus va Endrusning uyiga ishora bo‘lsa kerak (1:29 ga qarang).

2:4 *…uyning tomidan teshik ochdilar* — qadimgi Falastinda uylarning tomi tekis bo‘lar edi. Tomga uyning devori bo‘ylab qurilgan zina orqali chiqilardi. Uylarning tomi yopilganda, ko‘ndalang yotqizilgan to‘sinlar ustiga shox–shabbalar terilib, ustiga loy va somon qorishmasidan tayyorlangan lo‘mboz bosilar edi.

2:10 *Inson O‘g‘li* — Iso Masih ko‘pincha O‘ziga nisbatan ishlatgan unvon. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi INSON O‘G‘LI iborasiga qarang.

2:14 *Levi* — Matto ismi bilan ham tanilgan (Matto 9:9 ga qarang), Matto bayon etgan muqaddas Xushxabarning muallifi.

2:15 *soliqchilar* — bu soliqchilar odatda yahudiy bo‘lib turib, Rim davlatiga ishlagani uchun hamma ularni yomon ko‘rardi. Ko‘p soliqchilar firibgarlik qilib, xalqdan soliq uchun keragidan ortiqroq pul undirardilar–da, bu pulni o‘z cho‘ntaklariga urardilar. Mana shuning uchun ham xalq soliqchilardan nafratlanib, ularni o‘z imonini sotgan xoinlar deb bilardi.

2:16 *farziy* — yahudiylarning muhim bir diniy mazhabi. Farziylar Tavrot qonunlariga qat’iy rioya qilardilar, og‘zaki ravishda tarqalgan urf–odatlarga hamda poklanish udumlariga izchil amal qilardilar. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi FARZIY so‘ziga qarang.

2:22 *…yangi sharob meshni yorib yuboradi…* — qadimgi paytlarda suyuqlik odatda hayvon terisidan qilingan meshlarda saqlanardi. Uzum sharbati bijg‘ib, sharobga aylanganda, meshlar shishardi. Mesh eskirgani sari o‘z cho‘ziluvchanligini yo‘qotgani bois, yangi sharob eski meshga solinganda, meshni yorib yuborardi.

2:23 *…shogirdlari…boshoqlarni uza boshladilar* — Tavrot qonunlariga ko‘ra, och qolgan odam birovning dalasidan boshoqlarni uzib, donini yeyishi mumkin edi (Qonunlar 23:24-25 ga qarang).

2:24 *Shabbat kuni qonunga xilof ish* — farziylar Tavrotdagi qonunni (Chiqish 34:21 ga qarang) o‘zlaricha jiddiy sharhlab, hatto inson hayotiga oid ikir–chikirlarni ham qonun darajasiga ko‘targanlar. Shuning uchun ular Isoning shogirdlari qilgan ishni Shabbat kuniga xilof ish deb hisoblaganlar.

2:25 *Dovud hamrohlari bilan och qolib, ovqatga muhtoj bo‘lganda nimalar qilgani* — 1 Shohlar 21:1-6 ga qarang.

2:26 *Abuatar* — 1 Shohlar 22:20-23 ga qarang.

2:26 *muqaddas nonlar* — Levilar 24:5-9 ga qarang. Yana lug‘atdagi MUQADDAS NON iborasiga qarang.

3:2 *Isoni ayblamoqchi bo‘lgan ba’zi odamlar* — sinagogadagi farziylarga ishora (shu bobning 6–oyatiga qarang).

3:6 *Hirod tarafdorlari* — Buyuk Hirodning avlodlari hukmronligini qo‘llab–quvvatlagan

yahudiylarning bir guruhi. Buyuk Hirod va uning o‘g‘li Hirod Antipas (6:14 ga qarang) hokimiyati cheklangan bo‘lib, faqat Rim hukumati ruxsati bilan ish yuritardi. Farziylar Rim hukumatiga qattiq qarshilik ko‘rsatar, ammo Hirod tarafdorlari Rim hukmronligini qo‘llab–quvvatlar edilar.

3:11 *Xudoning O‘g‘li* — Iso Masihning unvoni. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi XUDONING O‘G‘LI iborasiga qarang.

3:14 *Iso o‘n ikki odamni tanlab olib, ularga havoriylar deb nom berdi* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *Iso o‘n ikki odamni tanladi*.

3:15 *…jinlarni haydash…* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *kasallarni sog‘aytirish va jinlarni haydash*.

3:18 *Taddeyus* — ba’zi olimlarning fikri bo‘yicha, bu ism Yoqub o‘g‘li Yahudoning yana bir ismi edi (Luqo 6:16, Havoriylar 1:13 ga qarang). Xoin Yahudodan ajralib turishi uchun unga Taddeyus ismi berilgan bo‘lishi mumkin.

3:18 *vatanparvar* — bu nom Shimo‘nning Rim imperiyasiga qarshilik ko‘rsatgan avom xalq harakatining a’zosi ekaniga ishora qilayotgan bo‘lishi mumkin. Ushbu harakat a’zolari siyosiy, iqtisodiy va diniy maqsadlarni ko‘zlagan edilar.

3:20 *uy* — Butrus va Endrusning Kafarnahumdagi uyiga ishora bo‘lsa kerak (1:29 ga qarang).

3:21 *oila a’zolari* — shu bobning 31-32–oyatlariga va 6:3 ga qarang.

3:22 *…Baalzabul…ins–jinslar hukmdori…* — shayton shohligidagi qudratli bir mavjudotga yoki shaytonning o‘ziga ishora.

3:29 *…kim Muqaddas Ruhga kufrlik qilsa…* — Xudoga ishonishdan bosh tortib, Muqaddas Ruhning ishiga qarshilik ko‘rsatadigan odamga ishora qiladi.

3:32 *onangiz va ukalaringiz* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *onangiz, ukalaringiz va singillaringiz*.

4:12 Muallif bu o‘rinda Ishayo 6:9-10 ning qadimiy yunoncha tarjimasidan foydalangan.

4:31 *xantal urug‘i* — o‘sha zamonda odamlar xantal urug‘ini eng mayda urug‘ deb bilishardi.

4:35 *ko‘lning narigi tomoni* — Jalila ko‘lining sharqiy qirg‘og‘iga ishora.

5:1 *narigi qirg‘og‘i* — ya’ni sharqiy qirg‘og‘i.

5:1 *Gerasa* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *Gadara*. Gerasa shahrida va uning atrofidagi qishloqlarda g‘ayriyahudiylar istiqomat qilardi.

5:7 *Xudoyi Taoloning O‘g‘li* — Iso Masihning unvoni. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi XUDONING O‘G‘LI iborasiga qarang.

5:9 *Tumonat* — yunoncha matnda *Legion*, ma’nosi *minglar*. Bu yunoncha so‘z Rimliklarning harbiy terminidan olingan bo‘lib, 6000 askardan iborat bo‘lgan bo‘linma ma’nosini ifodalaydi.

5:20 *Dekapolis hududi* — Samariya va Jaliladan sharqda joylashgan. Yunonchada Dekapolis nomining ma’nosi — *o‘nta shahar*. Dekapolis hududida Yunon va Rim madaniyatlarining markazi bo‘lgan o‘nta shahar bor edi.

5:21 *...ko‘lning narigi tomoniga...* — Iso orqaga, ko‘lning g‘arbiy qirg‘og‘idagi Jalila hududiga qaytib kelgan edi (shu bobning 1–oyatiga va o‘sha oyatning birinchi izohiga qarang).

5:38 *...bezovtalikni, dod–faryod qilayotgan odamlarni ko‘rdilar* — ba’zan dafn marosimlari paytida dod–faryod qilib, aytib yig‘lash uchun yig‘ichilar yollanardi.

5:41 *Talifa kum!* — oramiycha ibora.

6:1 *ona shahri* — ya’ni Nosira.

6:11 *...ularni ogohlantirish tariqasida oyoqlaringizning changini qoqib ketinglar* — odamlar Xudoning elchilarini rad etganlari uchun, havoriylar oyoqlaridagi changni qoqib ketardilar. Havoriy Pavlus ham shunga o‘xshash harakatni ishlatgan (Havoriylar 18:6 ga qarang). Bu harakat o‘sha odamlarning ayanchli qismatini, ya’ni Xudo tomonidan rad etilishini va Uning shohligidan benasib qolish xavfini anglatardi.

6:11 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida quyidagi so‘zlar oyatga qo‘shimcha qilingan: *Sizga chinini aytaman: qiyomat kunida o‘sha shaharning holi Sado‘m va G‘amo‘ra shaharlarining holidan ham battar bo‘ladi*.

6:13 *...ko‘p xastalarga zaytun moyi surtib...* — zaytun moyi qadimgi paytlarda malham sifatida ishlatilardi. U og‘riq qoldirib, terini qurib ketishdan saqlar edi (Ishayo 1:6, Luqo 10:34 ga qarang). Bu o‘rinda Xudoning shifo berish qudrati ramzi sifatida kasal odamga ozgina moy surtilgan bo‘lsa kerak (Yoqub 5:14 ga qarang).

6:14 *Hirod* — Antipas ismi bilan ham tanilgan bo‘lib, Buyuk Hirodning o‘g‘li edi. Antipas Jalila va Pereya hududlarida hukmronlik qilgan.

6:14 *Ba’zi odamlar...deyishardi* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *Hirod...derdi*.

6:15 *Ilyos* — Eski Ahd davrida yashagan eng buyuk payg‘ambarlardan biri. Yahudiylar Ilyosning qaytib kelishini intizorlik bilan kutishardi (Malaki 4:5-6 ga qarang).

6:20 *Uning so‘zlari Hirodni gangitib qo‘yardi, shunga qaramay, Hirod uni eshitishni xush ko‘rardi* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *Hirod ko‘p ishlarni uning maslahati bilan qilardi va uni eshitishni xush ko‘rardi*.

6:22 *Hirodiyaning qizi* — ba’zi yunon qo‘lyozmalaridan (yana Matto 14:3-6 ga qarang). Yunoncha matnda *Hirodning qizi Hirodiya*.

6:30 *Havoriylar...aytib berdilar* — shu bobning 7, 12-13–oyatlariga qarang.

6:32 *...qayiqqa tushib...* — Jalila ko‘lida.

6:37 *ikki yuz kumush tanga* — yunoncha matnda *ikki yuz dinor*. Dinor Rim kumush tangasi bo‘lib, mardikorning bir kunlik ish haqi edi.

6:45 *...ko‘lning narigi tomonidagi...* — Iso va uning shogirdlari shu paytda ko‘lning aynan qaysi qismida bo‘lganlari aniq emas. “Ko‘lning narigi tomonidagi” degan ibora ko‘lning o‘sha qirg‘og‘idagi boshqa bir joyga qayiq bilan suzib borishni ham bildirishi mumkin. An’anaga ko‘ra, Iso bir necha ming kishini to‘ydirgan bu joy ko‘lning shimoli–g‘arb tomonida, Jaliladagi Baytsaydaga yaqin edi.

6:45 *Baytsayda shahri* — bu o‘rinda ko‘lning shimoli–sharq tomonidagi shaharga yoki ko‘lning shimoli–g‘arb tomonida joylashgan, Jaliladagi Baytsayda degan shaharga ishora

qilinayotgan bo‘lishi mumkin (Yuhanno 12:21 ga qarang).

6:48 *...ularning oldidan o‘tib ketmoqchi bo‘ldi* — Iso O‘z shogirdlariga ular bilan birga ekanligini ko‘rsatish uchun oldilaridan o‘tib ketmoqchi bo‘ldi.

6:52 *...ularning imoni sust edi* — yunoncha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *...ularning yuraklari qotib qolgandi*.

6:53 *Ular ko‘ldan suzib o‘tib...* — shu bobning 45–oyatiga berilgan birinchi izohga qarang.

6:53 *Genisaret* — Kafarnahum shahridan janubi–g‘arbdagi serhosil tekislik.

7:2 *yuvilmagan qo‘llari* — farziylar va Tavrot tafsirchilari ovqatlanishdan oldin qo‘llarining yuvilishiga alohida e’tibor qaratishardi. Ayniqsa ko‘chada, odamlar orasida bo‘lib kelgandan keyin, dasturxonga o‘tirishdan oldin urf–odatlarga ko‘ra qo‘llarini yuvib, o‘zlarini poklab olishardi.

7:6-7 Muallif bu o‘rinda Ishayo 29:13 ning qadimiy yunoncha tarjimasidan foydalangan.

7:8 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida quyidagi so‘zlar oyatga qo‘shimcha qilingan: *Axir, sizlar tovoq va kosa chayish bilan bog‘liq va boshqa yana ko‘p udumlarga rioya qilasiz*.

7:10 Chiqish 20:12, 21:17, Levilar 20:9, Qonunlar 5:16 ga qarang.

7:15-16 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida quyidagi so‘zlar 16–oyatni tashkil etib, qo‘shimcha qilingan: *Kimning eshitar qulog‘i bo‘lsa, eshitsin!*

7:24 *Tir* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *Tir va Sidon*. Tir va Sidon Finikiyada muhim ahamiyatga ega bo‘lgan g‘ayriyahudiylar shaharlari. Bu shaharlar Jaliladan shimoli–g‘arbda, O‘rta yer dengizi bo‘yida joylashgan edi. Bugungi kunda bu yer Livan mamlakatining janubiy qismini tashkil qiladi.

7:26 *Suriyadagi Finikiya* — o‘sha davrda Finikiya Rim imperiyasiga qarashli Suriya viloyatining bir qismi edi. Hozirgi Livan mamlakatining dengiz bo‘yidagi hududi.

7:28 *Hazrat* — yunoncha matnda *kurios*. Bu o‘rinda obro‘–e’tiborli insonga nisbatan ishlatiladigan so‘z sifatida qo‘llangan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi XUDONING NOMLARI iborasi ostida berilgan RABBIY, RABBIM, RABBIMIZ... so‘ziga qarang.

7:31 *Sidon* — shu bobning 24–oyati izohiga qarang.

7:31 *Dekapolis hududi* — 5:20 izohiga qarang.

7:34 *“Effatah!”* — oramiycha so‘z.

8:10 *Dalmanuta* — Jalila ko‘lining g‘arbiy qirg‘og‘ida, Magadan yaqinida joylashgan qishloq bo‘lishi mumkin (Matto 15:39 ga qarang).

8:13 *narigi qirg‘oq* — ya’ni Jalila ko‘lining shimoli–sharqiy qirg‘og‘i (shu bobning 22–oyati izohiga qarang).

8:15 *Hirod* — Antipas ismi bilan ham tanilgan bo‘lib, Buyuk Hirodning o‘g‘li edi. Antipas Jalila va Pereya hududlarida hukmronlik qilgan. Iso bu o‘rinda Hirodning tarafdorlarini ham nazarda tutgan bo‘lishi mumkin (3:6 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang).

8:15 *xamirturush* — majoziy ma’noda ishlatilgan bo‘lib, odatda boshqalarga salbiy ta’sir

koʻrsatadigan taʼlimotlar va xulq–atvor nazarda tutilgan.

8:17 *Imoningiz shunchalik sustmi?!* — yunoncha matndan soʻzma–soʻz tarjimasi *Yuraklaringiz qotib qolganmi?!* Yana 6:52 ga qarang.

8:22 *Baytsayda shahri* — bu oʻrinda koʻlning shimoli–sharq tomonida joylashgan shaharga ishora boʻlsa kerak. Koʻlning shimoli–gʻarb tomonida ham Jaliladagi Baytsayda degan shahar bor edi (Yuhanno 12:21 ga qarang).

8:25 *…koʻrning koʻzlariga tekkizdi* — yunoncha matndan. Baʼzi yunon qoʻlyozmalarida *koʻrning koʻzlariga tegizib, unga "Qara!" deb buyurdi*.

8:26 Yunoncha matndan. Baʼzi yunon qoʻlyozmalarida quyidagi soʻzlar Isoning gapiga qoʻshimcha qilingan: *qishloqda hech kimga buni aytma*.

8:27 *Filip Qaysariyasi* — Jalila koʻlidan qariyb 40 kilometr shimoli–sharqda joylashgan shahar.

8:28 *Ilyos* — 6:15 izohiga qarang.

8:29 *Masih* — bu unvonni yahudiylar kelajakda ularni dushmanlaridan qutqaradigan va butun yer yuzidagi xalqlar ustidan hukmronlik qiladigan insonga nisbatan ishlatganlar. Eski Ahdda Masihning qiladigan ishlari haqida bashoratlar yozilgan. Yangi Ahdga koʻra Rabbimiz Iso oʻsha Masihdir. Toʻliqroq maʼlumotga ega boʻlish uchun lugʻatdagi MASIH soʻziga qarang.

8:31 *bosh ruhoniylar* — jamiyatning boshqa eʼtiborli odamlari qatorida Oliy kengash aʼzolari edilar. Oliy kengash yahudiylarning siyosiy va diniy kengashi edi. Toʻliqroq maʼlumotga ega boʻlish uchun lugʻatdagi BOSH RUHONIYLAR iborasiga qarang.

8:34 *…oʻz xochini koʻtarib…* — Rim imperiyasi davrida oʻlim jazosining bir turi mahkumni xochga mixlash edi. Bu jazo hammaga maʼlum boʻlgan. Odatda jinoyatchi oʻzi mixlanadigan xochning koʻndalang yogʻochini hukm ijro etiladigan joyga koʻtarib olib borar edi (toʻliqroq maʼlumotga ega boʻlish uchun lugʻatdagi XOCH soʻziga qarang). Iso Masih mana shu timsol orqali shogirdlarini hamda Unga ishonganlarni oʻz manfaatlarini koʻzlamasdan, Unga butunlay oʻzlarini bagʻishlab va itoat qilib hayot kechirishga, hattoki U uchun oʻlimga ham rozi boʻlishga daʼvat etadi.

8:38 *Ota* — Xudoga ishora. Iso koʻpincha Ota unvonini Xudoga nisbatan ishlatgan. Toʻliqroq maʼlumotga ega boʻlish uchun lugʻatdagi XUDONING NOMLARI iborasi ostida berilgan OTA soʻziga qarang.

9:7 *Bu Mening sevikli Oʻgʻlimdir* — Zabur 2:7 ga qarang.

9:11 *…Masihdan oldin Ilyos kelishi kerak…* — 6:15 izohiga qarang.

9:12 *Muqaddas bitiklar* — odatda Eski Ahd kitoblari toʻplami shu nom bilan ataladi.

9:13 *…Ilyos allaqachon kelgan…* — Yahyo choʻmdiruvchi nazarda tutilgan (Matto 17:11-13 ga qarang).

9:13 *…u haqda yozilganidek, uni xohlaganlaricha xoʻrladilar* — Hirod Hirodiyaning iltimosi bilan Yahyoni qanday qilib qatl qilganiga ishora (6:17-29 ga qarang). Shoh Axabning fosiq xotini Izabel ham Ilyos paygʻambarni oʻldirmoqchi boʻlgan edi (3 Shohlar 19:1-2, 10 ga qarang). Ilyosning hayotida boʻlib oʻtgan oʻsha voqea Yahyoning taqdiriga ishora boʻlgan.

9:29 *ibodat* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *ibodat va ro‘za*.

9:42 *shu kichiklarning birontasi* — Iso Masihga imon keltirgan odamlar, ayniqsa kichik bola singari, ojiz va qarovga muhtoj bo‘lganlar nazarda tutilgan.

9:43-44 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida quyidagi so‘zlar 44–oyatni tashkil etib, qo‘shimcha qilingan: *Do‘zaxning qurti ham o‘lmaydi, olovi ham o‘chmaydi*.

9:45-46 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida quyidagi so‘zlar 46–oyatni tashkil etib, qo‘shimcha qilingan: *Do‘zaxning qurti ham o‘lmaydi, olovi ham o‘chmaydi*.

9:48 *Do‘zaxning qurti ham o‘lmaydi, olovi ham o‘chmaydi* — Ishayo 66:24 ga qarang.

9:49 *Har bir odam olovda tuzlanib, poklanadi* — yunoncha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *Har bir odam olovda tuzlanadi*. Olov — poklash yoki jazolash ramzi. Tuz esa barqarorlik va o‘zgarmaslik ramzidir, chunki qadimda tuz ba’zi oziq–ovqat mahsulotlarini achib qolishdan saqlash uchun ishlatilgan. Iso Masih bu gapi orqali O‘z shogirdlarining azob–uqubatlarni boshdan kechirishini nazarda tutgan bo‘lsa kerak. Zotan, Iso Masihning nomi uchun azob chekish insonning imonini poklaydi va uni gunohning halokatli ta’siridan asraydi. Shu bilan birga, Iso O‘ziga ishonmaydiganlarning do‘zaxda to abad jazo tortishiga ishora qilgan bo‘lishi ham mumkin. Xullas, Isoning bu so‘zlari shu ikkala ma’noning birini yoki bir paytda ikkala ma’noni ham anglatgan bo‘lishi mumkin.

9:49 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida quyidagi so‘zlar oyatga qo‘shimcha qilingan: *har bir qurbonlik tuzga bulanadi* (Levilar 2:13, Hizqiyol 43:24 ga qarang).

9:50 *Tuzday bo‘linglar, o‘zaro tinch–totuv yashanglar* — shu bobning 33-35–oyatlariga qarang. Tuz barqarorlik va o‘zgarmaslik ramzidir, chunki qadimda tuz ba’zi oziq–ovqat mahsulotlarini achib qolishdan saqlash uchun ishlatilgan. Tuzday bo‘lish Iso Masihga sodiq qolish va Uning amrlariga itoat etishga ishora qiladi. Shu tarzda yashash ularning orasida tinchlikni saqlaydi.

10:2 *Qonunga ko‘ra, er o‘z xotinidan ajralishi mumkinmi?* — o‘sha davrda yahudiylar, ajrashish mumkin, deb aytardilar. Ammo ajrashishga qanday sabablar bo‘lishi mumkinligi haqida ko‘p bahs–munozaralar bor edi. Matto 19:3 izohiga qarang.

10:4 *Erkak…xotinidan ajralishiga Muso ijozat bergan edi* — Qonunlar 24:1 ga qarang.

10:6 *…odamlarni erkagu ayol qilib yaratdi* — Ibtido 1:27, 5:2 ga qarang.

10:7-8 Ibtido 2:24 ga qarang.

10:19 Chiqish 20:12-16, Qonunlar 5:16-20 ga qarang.

10:21 *Keyin kelib…* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *Keyin kelib, xochni ko‘tarib* (8:34 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang).

10:24 *…Xudoning Shohligiga kirish naqadar qiyin!* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *boylikka umid bog‘laganlar uchun Xudoning Shohligiga kirish naqadar qiyin!*

10:33 *g‘ayriyahudiylar* — o‘sha davrda Yahudiyada hukmronlik qilgan Rim imperiyasi amaldorlariga ishora.

10:37 *Sizning o‘ng tomoningiz* — o‘ng tomon muruvvat va baraka o‘rni deb hisoblangan.

10:38 *azob kosasi* — yunoncha matnda *kosa*, Isoning azoblari va xochdagi o‘limiga ishora (shu bobning 32-34–oyatlariga qarang). “Kosadan ichmoq” iborasi azob–uqubat tortib, jazo olish ma’nosini bildiradi (misol uchun, Zabur 74:9, Ishayo 51:17, Yeremiyo 25:15 ga qarang).

10:47 *Dovud O‘g‘li* — yahudiylar shoh Dovud naslidan kelib chiqadigan Masihni shunday nom bilan atashar edi. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi MASIH so‘ziga qarang.

11:1 *Zaytun tog‘i* — Quddus shahrining sharqiy devori bo‘ylab o‘tgan Qidron soyligining narigi tomonidagi tepalik.

11:2 *Anavi qishloq* — ya’ni Baytfagiya (Matto 21:1-2 ga qarang).

11:9 *Egamiz nomidan kelayotgan Inson baraka topsin!* — Zabur 117:26 ga qarang.

11:15 *Sarroflar* — pul ayirboshlovchilar. Ular Rim va Yunon tangalarini yahudiylarning shaqaliga almashtirganlar. Ma’bad solig‘ini to‘lash va qurbonlik qilinadigan hayvonlarni sotib olish uchun shaqal ishlatilgan.

11:16 *Sotiladigan molni Ma’bad ichidan olib o‘tish* — ba’zi odamlar manzilga tezroq yetib borish uchun Ma’bad hovlisini kesib o‘tardilar.

11:17 Ishayo 56:7 ga qarang.

11:17 *qaroqchilar uyasi* — Yeremiyo 7:11 ga qarang.

11:25-26 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida quyidagi so‘zlar 26–oyatni tashkil etib, qo‘shimcha qilingan: *Bordi–yu, sizlar boshqalarning gunohlarini kechirmasangizlar, Otangiz ham sizni kechirmaydi*.

12:1 *uzum siqish chuquri* — qadimgi paytlarda odamlar uzumni qoyatoshga o‘yilgan chuqurga yoki tuproqdan qazilgan, tubiga va atrofiga zich qilib tosh terilgan chuqurga solib, sharbatini siqib olish uchun oyoqlari bilan ezardilar. Sharbat o‘sha chuqurdan yana boshqa bir chuqurga oqib tushardi.

12:4 *Ular bunisini ham boshiga urib, haqorat qilibdilar* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *unga tosh otib, boshini yaraladilar va haqoratlab, jo‘natib yubordilar*.

12:10 *tamal toshi* — qadimgi paytlarda qurilishda poydevor uchun qo‘yilgan birinchi va eng muhim tosh hisoblanardi. Bu tosh poydevorning bir burchagini hosil qilib, binoning qolgan qismi o‘sha toshning joylashuvi bo‘yicha qurilardi.

12:10-11 Zabur 117:22-23 ga qarang.

12:13 *Hirod tarafdorlari* — 3:6 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

12:14 *Qaysar* — barcha Rim imperatorlariga berilgan unvon. Bu o‘rinda Qaysar Tiberiyga ishora qilingan. U milodiy 14-37 yillarda hukmronlik qilgan.

12:14 *...Qaysarga soliq to‘lashimiz...* — yahudiylar Rim bosqinchilaridan g‘oyat nafratlanganlari uchun, ularga soliq to‘lashni aslo istamas edilar. Biroq soliq to‘lamaslik katta muammolarni keltirib chiqarar edi.

12:15 *dinor* — Rim kumush tangasi. Bir dinor mardikorning bir kunlik ish haqi edi.

12:18 *Sadduqiylar* — yahudiylarning muhim bir diniy mazhabi. Farziylardan farqli

ravishda, ular og‘zaki tarqalgan urf–odatlarni qabul qilmasdilar, balki faqatgina Tavrotda yozilgan qonun–qoidalarga rioya qilardilar. Ular o‘liklarning tirilishiga ham ishonmas edilar. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi SADDUQIY so‘ziga qarang.

12:19 *Muso bizga shunday yozib qoldirgan…* — Qonunlar 25:5-6 ga qarang.

12:24 *Muqaddas bitiklar* — odatda Eski Ahd kitoblari to‘plami shu nom bilan ataladi.

12:26 *Yonayotgan buta to‘g‘risidagi voqeada…* — Chiqish 3:1-6 ga qarang.

12:29 *Egamiz Xudo tanho Egadir* — yoki *Egamiz Xudoyimizdir, Egamiz tanhodir* yoki *Egamiz Xudo, Egamiz bittadir*.

12:29-30 Qonunlar 6:4-5 ga qarang.

12:31 Levilar 19:18 ga qarang.

12:33 *kuchimiz boricha* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *jonu dilimiz bilan, kuchimiz boricha*.

12:35 *Dovudning O‘g‘li* — 10:47 izohiga qarang.

12:36 *Mening o‘ng tomonim* — o‘ng tomon muruvvat va baraka o‘rni deb hisoblangan.

12:36 Zabur 109:1 ga va o‘sha oyatning birinchi izohiga qarang.

12:42 *ikki chaqa* — yunoncha matnda *ikki lepton, ya’ni chorak* (ikki *lepton* chorak *assarion* qiymatiga to‘g‘ri kelardi). *Lepton* o‘sha davrda ishlatilgan qiymati eng past tanga.

13:2 *Bularning hammasi vayron bo‘ladi* — milodiy 70 yilda Tit boshchiligida Rim qo‘shini Quddusni va u yerdagi Ma’badni butunlay vayron qilgan.

13:3 *Zaytun tog‘i* — 11:1 izohiga qarang.

13:14 *makruh bir narsa* — Doniyor 9:27 ga va o‘sha oyatning oxirgi izohiga qarang. Yana Doniyor 11:31, 12:11 ga qarang.

13:15 *Tomning ustida bo‘lganlar* — u zamonlarda uylarning tomi tekis bo‘lib, odamlar tomga chiqib dam olishardi.

13:24-25 Ishayo 13:10, 34:4 ga qarang.

13:26 *Inson O‘g‘li…bulutlarda keladi* — Doniyor 7:13-14 ga qarang.

13:29 *o‘sha vaqt* — yoki *Inson O‘g‘li*.

13:33 *…hushyor turinglar…* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *hushyor bo‘lib ibodat qilinglar*.

14:1 *Fisih ziyofati…Xamirturushsiz non bayrami…* — bu bayramlar Isroil xalqining Misrdagi qullikdan ozod bo‘lishi munosabati bilan nishonlanar edi (Chiqish 12:1-42, 13:3-10 ga qarang).

14:3 *Baytaniya qishlog‘i* — Quddus shahrining sharqiy devori bo‘ylab o‘tgan Qidron soyligining narigi tomonida joylashgan edi.

14:3 *teri kasalligi* — 1:40 izohiga qarang.

14:3 *ilgari teri kasalligiga chalingan Shimo‘n* — bu odam haqida faqatgina shu oyatda va Matto 26:6 da aytib o‘tilgan. Bu Shimo‘n Isodan shifo topgani bilan tanilgan bo‘lishi

mumkin.

14:3 *ganch* — bu oʻrinda ishlatilgan yunoncha soʻz naqqoshlikda qoʻllaniladigan oqish yoki sargʻish rangli toshni bildiradi. Odatda bu toshdan yasalgan idishlarda atir moyni uzoq vaqt davomida saqlasa boʻlardi.

14:3 *sunbul moyi* — yana bir nomi *nard*. Bu moy quyuq, och jigar rang, juda ham qimmat, juda xushboʻy boʻlgan.

14:5 *uch yuz kumush tanga* — yunoncha matnda *uch yuz dinor*. Dinor Rim kumush tangasi boʻlib, mardikorning bir kunlik ish haqi edi.

14:8 *U…oldindan dafnga tayyorladi* — yahudiylarning urf–odatiga koʻra jasad dafn qilinishidan oldin unga xushboʻy hidli ziravorlar va moylar surtilar edi (Luqo 23:55-56, Yuhanno 19:38-40 ga qarang). Ayol qilgan ishining maʼnosini oʻzi tushunganmi yoki yoʻqmi, aniq emas, ammo Iso aytadiki, uning bu harakati Isoning oʻlimi yaqinlashib qolganini bildirardi.

14:24 *ahd* — yunoncha matndan. Baʼzi yunon qoʻlyozmalarida *yangi ahd*. Iso Masih butun odamzodning gunohini Oʻz boʻyniga olib, xochda oʻldi. Shu orqali yangi ahdni kuchga kiritdi (Ibroniylar 8:6-13, 9:11-17 ga qarang). Toʻliqroq maʼlumotga ega boʻlish uchun lugʻatdagi AHD soʻziga qarang.

14:26 *Zaytun togʻi* — 11:1 izohiga qarang.

14:27 Zakariyo 13:7 ga qarang.

14:32 *Getsemaniya* — Zaytun togʻining gʻarbiy yon bagʻridagi bogʻ.

14:36 *Otajon!* — yunoncha matnda *Abba, Ota*. Abba soʻzi oramiychada ota deganidir. Iso Masih Xudoga “Ota” deb murojaat qilgani Uning Xudo bilan boʻlgan yaqin, shaxsiy munosabatini koʻrsatadi. Toʻliqroq maʼlumotga ega boʻlish uchun lugʻatdagi XUDONING NOMLARI iborasi ostida berilgan OTA soʻziga qarang.

14:36 *azob kosasi* — yunoncha matnda *kosa*. 10:38 izohiga qarang.

14:37 *Shimoʻn* — Butrus ismi bilan ham tanilgan, Butrus ismini unga Iso qoʻygan edi (3:16 ga qarang).

14:38 *…vasvasaga tushib qolmaylik, deb ibodat qilinglar* — Iso Oʻz shogirdlarini hademay sinov payti boshlanishi haqida ogohlantiryapti (shu bobning 27-31–oyatlariga qarang). Oʻsha paytda ular vasvasaga tushib, Iso Masihdan yuz oʻgirishlari mumkin edi.

14:49 *Muqaddas bitiklar* — odatda Eski Ahd kitoblari toʻplami shu nom bilan ataladi.

14:55 *Oliy kengash* — yahudiylarning siyosiy va diniy kengashi. Toʻliqroq maʼlumotga ega boʻlish uchun lugʻatdagi OLIY KENGASH iborasiga qarang.

14:55 *…Isoni oʻlimga mahkum qilish uchun Unga qarshi guvoh izlar edilar* — Tavrot qonuniga koʻra, birortasini oʻlimga mahkum qilish uchun, jinoyatni isbotlaydigan kamida ikkita guvoh boʻlishi kerak edi (Qonunlar 17:6 ga qarang).

14:58 *U…deganini eshitgan edik* — Yuhanno 2:18-22 ga qarang.

14:61 *Xudoning Oʻgʻli* — Iso Masihning unvoni. Toʻliqroq maʼlumotga ega boʻlish uchun lugʻatdagi XUDONING OʻGʻLI iborasiga qarang.

14:62 *Qodir Xudoning oʻng tomonida oʻtirgani* — Zabur 109:1 ga qarang. Oʻng tomon

muruvvat va baraka o‘rni deb hisoblangan.

14:62 *...Inson O‘g‘lini...osmon bulutlarida kelayotganini ko‘rasizlar* — Doniyor 7:13 ga qarang.

14:63 *...o‘z kiyimlarini yirtib...* — oliy ruhoniy bu harakati bilan Isoning aytgan so‘zlaridan darg‘azab bo‘lganini ko‘rsatdi.

14:70 *Sen Jalilaliksan–ku!* — buni Butrusning shevasidan payqab olishgan edi (Matto 26:73 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang).

14:70 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida quyidagi so‘zlar oyatga qo‘shimcha qilingan: *shevang juda o‘xshaydi*.

15:1 *hokim Pilat* — Rim hukumati tomonidan Yahudiya viloyatiga tayinlangan hokim.

15:6 *Fisih bayrami* — Fisih ziyofatiga va undan keyin yetti kun davomida nishonlanadigan Xamirturushsiz non bayramiga ishora (14:1 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang).

15:7 *Isyon* — yuz bergan bu hodisa kitob yozilgan davrda yashagan odamlarga ma’lum bo‘lgan. Hozirgi davrda bu isyon haqida hech qanday ma’lumot yo‘q.

15:21 *xoch* — bu o‘rinda xochning ko‘ndalang yog‘ochiga ishora qilingan. O‘limga mahkum qilingan inson bu yog‘ochni hukm ijro qilinadigan joygacha o‘zi ko‘tarib borishi kerak edi. Bundan oldin Isoni ayovsiz qamchilashgani uchun (shu bobning 15–oyatiga va Matto 27:26, Yuhanno 19:1 ga qarang), U shu qadar holdan toygan ediki, ehtimol, xochni O‘zi ko‘tarishga madori qolmagan bo‘lsa kerak.

15:21 *Kirineya* — bu shahar O‘rta yer dengizi bo‘yida, hozirgi Liviya mamlakatining hududida joylashgan edi.

15:23 *mirra aralashtirilgan sharob* — xochga mixlanadigan odamlarning azobini oz bo‘lsa–da, kamaytirish uchun beriladigan dori bo‘lishi mumkin.

15:24 *Uning kiyimlarini esa o‘zaro bo‘lishib, kim nima oladi, deb qur’a tashlashdi* — Zabur 21:19 ga qarang.

15:25 *soat to‘qqiz* — yunoncha matnda *uchinchi soat*, yahudiylarning urf–odatiga ko‘ra, kunning bu payti o‘sha soat bilan belgilanar edi.

15:27-28 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida quyidagi so‘zlar 28–oyatni tashkil etib, qo‘shimcha qilingan: *Shu tariqa Muqaddas bitiklardagi: “U gunohkorlar qatorida sanaldi”, — deya yozilgan so‘z amalga oshdi*. Ishayo 53:12 ga qarang.

15:29 *...boshlarini chayqab, Isoni haqoratlashardi* — Zabur 21:8 ga qarang.

15:33 *Tush payti...Soat uch...* — yunoncha matnda *Oltinchi soat...to‘qqizinchi soat...*, yahudiylarning urf–odatiga ko‘ra, kunning bu paytlari o‘sha soatlar bilan belgilanar edi.

15:34 *Elohi, Elohi, lamo shavaqtani?* — oramiycha ibora.

15:34 Zabur 21:2 ga qarang.

15:35 *Ilyos* — oramiycha *Elohi* so‘zi ibroniycha *Eliyah* (ya’ni Ilyos) degan ismga ohangdosh.

15:36 *arzon sharob* — bu o‘rinda ishlatilgan yunoncha so‘z avom xalq kunda ichadigan nordon sharobga ishora qiladi. Bu sharob Rim askarlari uchun o‘sha yerga olib kelingan

bo‘lishi mumkin.

15:36 *...Ilyos kelib...* — 6:15 izohiga qarang.

15:38 *Ma’baddagi parda* — shoh Hirod qayta qurgan Ma’badda ikkita parda bor edi. Pardaning biri Ma’badning kiraverishida osilgan, ikkinchisi esa Eng muqaddas xonani Muqaddas xonadan ajratib turar edi. Bu oyatda Eng muqaddas xonani Muqaddas xonadan ajratib turadigan parda nazarda tutilgan. Ma’baddagi pardaning yirtilishi Iso tufayli odamlarga Xudoning huzuriga yo‘l ochilganidan dalolat beradi (Yuhanno 4:19-24, Ibroniylar 9:1-10, 10:19-22 ga qarang).

15:39 *Xudoning O‘g‘li* — Iso Masihning unvoni. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi XUDONING O‘G‘LI iborasiga qarang.

15:40 *Magdala* — Jalila ko‘lining g‘arbiy qirg‘og‘idagi qishloq.

15:42 *Juma kuni kech kirishiga oz qolgan...* — yahudiylarning urf–odatiga ko‘ra, yangi kun quyosh botgandan keyin boshlanar edi. Juma kuni tugayotgani uchun Yusuf jasadni Shabbat kuni boshlanmasidan oldin qabrga qo‘ymoqchi bo‘lgan (Luqo 23:50-56 ga qarang).

15:43 *Arimateya* — Quddusdan 35 kilometr shimoli–g‘arbda joylashgan shahar.

15:47 *Yusuf* — shu bobning 40–oyatida aytib o‘tilgan odamga ishora, Arimateyalik Yusufdan boshqa odam.

16:1 *Shabbat kuni tugagach...* — shanba kuni quyosh botgandan keyingi vaqtga ishora. Yahudiylarning urf–odatiga ko‘ra, yangi kun quyosh botgandan keyin boshlanar edi.

16:1 *Magdala* — Jalila ko‘lining g‘arbiy qirg‘og‘idagi qishloq.

16:1 *...Isoning jasadiga surtish uchun xushbo‘y moylar sotib oldilar* — 14:8 izohiga qarang.

16:7 *O‘zi sizlarga aytganidek...* — 14:28 ga qarang.

16:8 Mark kitobining eng qadimgi yunon qo‘lyozmalari va tarjimalari shu bobning 9-20–oyatlarini o‘z ichiga olmagan.

16:19 *U Xudoning o‘ng tomoniga o‘tirdi* — 14:62 ning birinchi izohiga qarang.

16:20 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida quyidagi so‘z oyatga qo‘shimcha qilingan: *omin*.

LUQO

BAYON ETGAN MUQADDAS XUSHXABAR

Kirish

Mazkur kitob Yangi Ahd tarkibidagi to‘rtta Xushxabarning uchinchisidir. Bu kitob muallifi Luqodir. U havoriy Pavlusning sodiq do‘sti bo‘lib, ko‘p safarlarda unga hamrohlik qilgan yaqin hamkori edi. Xushxabarlar orasida Luqo bayon etgan Xushxabar eng uzuni bo‘lib, Isoning hayoti va faoliyatini boshidan oxirigacha batafsil bayon etadi. Luqo Isoni nafaqat Isroilning, balki butun dunyoning Najotkori qilib tasvirlaydi. Iso haqidagi Xushxabar barcha millat va xalqlarga qaratilganini ko‘rsatadi.

Mazkur Xushxabar tarkibiga boshqa Xushxabarlarda bo‘lmagan ko‘plab masal va hikoyalar kiritilgan. Bular quyidagilardir: farishtalarning hamdu sano qo‘shig‘i, chaqaloq Isoni cho‘ponlar ziyorat qilishi, o‘smir Iso Ma’badda, rahmdil Samariyalik haqida masal va darbadar o‘g‘il.

Bu Xushxabar boshqalaridan bir necha jihati bilan ajralib turadi. Kitobda odamlarning qiyinchiliklari va muhtojliklariga katta e’tibor qaratilgan. Muallifning bayon qilishicha, Muqaddas Ruh Isoni qamrab olib, Uni yo‘qsillarga Xushxabar yetkazishga chorlagan (4:18). Kitobda ibodatga ham alohida urg‘u beriladi, ayniqsa Iso ma’lum vaziyatlarda ibodat qilgani aytib o‘tiladi. Shuningdek, muallif ayollarning jamiyatdagi tutgan o‘rni, kambag‘allarga jonkuyarlik, gunohkorlarga inoyatli bo‘lish va Muqaddas Ruh haqidagi mavzularni keng yoritadi.

Kitobni o‘qir ekansiz, quvonch hissi qalbingizni yayratadi, ayniqsa dastlabki boblarda Isoning tug‘ilishi to‘g‘risidagi xabar va ro‘y bergan hodisalar dilingizni shodon hayratga to‘ldiradi, kitobning so‘nggi boblarida hikoya qilingan Isoning osmonga ko‘tarilib ketishi haqidagi voqea esa qalbga umid baxsh etadi.

1–BOB

Muqaddima

1-3 Hurmatli Teofilus!* O‘zingizga ma’lumki, ko‘p odamlar oramizda Xudoning qilgan ishlari tafsilotini yozishga kirishganlar. Bu voqealarni yozishda ular bo‘lib o‘tgan hodisalarni boshidan ko‘rgan va ularni bizga yetkazgan odamlarning so‘zlarini asos qilib olganlar. Shuning uchun men ham hammasini boshidan sinchiklab tekshirganimdan keyingina, bu voqealarning tafsilotini tartib bilan sizga yozib berishga qaror qildim,
4 toki sizga o‘rgatilgan ta’limotning haqiqiyligiga o‘zingiz ishonch hosil qiling.

Yahyo cho‘mdiruvchining tug‘ilishi haqida karomat

5 Yahudiya shohi Hirod* davrida Zakariyo degan bir ruhoniy* bor edi. U ruhoniy Abiyo urug‘idan* kelib chiqqandi, xotini Elisabet ham ruhoniylar* naslidan edi. 6 Ikkovi ham Xudo oldida solih bo‘lib, Egamizning amru farmonlariga bekami–ko‘st rioya qilishardi. 7 Elisabet bepusht bo‘lgani uchun ularning farzandi yo‘q edi. Buning ustiga, ikkovi ham keksayib qolgan edilar.

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

8 Zakariyoning ruhoniylar bo‘linmasi Ma’badda navbatchilik qilayotgan kunlarning
birida, Zakariyo Xudoning huzurida ruhoniylik vazifasini bajarayotgan edi.
9 Ruhoniylarning odati bo‘yicha, Egamizning Ma’badiga kirib, xushbo‘y tutatqilar
tutatish* qur’asi* unga tushgandi. 10 Tutatqi tutatish vaqtida katta bir olomon
tashqarida ibodat qilayotgan edi. 11 Shu payt Egamizning bir farishtasi Zakariyoga zohir
bo‘ldi. Farishta tutatqi qurbongohining o‘ng tomonida turardi. 12 Zakariyo uni ko‘rib,
qo‘rqqanidan o‘zini yo‘qotib qo‘ydi.

13 Farishta unga dedi:

— Zakariyo, qo‘rqma, sening iltijolaring ijobat bo‘ldi. Xotining Elisabet senga bir
o‘g‘il tug‘ib beradi. Uning ismini Yahyo qo‘yasan. 14 U senga shodlik va quvonch keltiradi,
uning tug‘ilganidan ko‘pchilik xursand bo‘ladi. 15 U Egamizning nazarida ulug‘ bo‘ladi,
sharobu o‘tkir ichimliklarni og‘ziga olmaydi. Onasining qornidayoq* Muqaddas Ruhga
to‘ladi. 16 Isroil xalqidan bo‘lgan ko‘plarni u Egasi Xudoga qaytaradi. 17 U Ilyos
payg‘ambarning ruhi va qudratiga to‘lib*, Rabbimiz Masihdan* oldin keladi. Rabbimizga
tayyor bir xalqni taqdim qilish uchun otalarning yuraklarini farzandlariga moyil qiladi,
itoatsizlarning fikrini solihlar donoligi tomon buradi.

18 Zakariyo farishtaga dedi:

— Men bunga qanday amin bo‘laman? Axir, men keksayib qolganman, xotinim ham
qarib qolgan bo‘lsa?

19 Farishta unga shunday javob berdi:

— Men Xudoning huzurida turadigan Jabroilman. Sen bilan gaplashgani, senga bu
Xushxabarni e’lon qilgani yuborilganman. 20 Senga aytganlarim o‘z vaqtida bajo bo‘ladi.
Ammo mening so‘zlarimga ishonmaganing uchun tildan qolasan. Aytganlarim bajo
bo‘lmaguncha, gapirolmaysan.

21 Shu orada Zakariyoni kutib turgan xalq uning Ma’badda imillab qolganiga hayron
bo‘ldi. 22 Nihoyat, Zakariyo tashqariga chiqdi, ammo so‘zlamoqqa tili aylanmadi. Xalq
uning Ma’badda vahiy ko‘rganligini tushundi. Zakariyo soqov bo‘lib qolgani uchun xalq
bilan imo–ishoralar orqali so‘zlashishga majbur bo‘ldi.

23 Ma’baddagi xizmat muddati tugagach, Zakariyo uyiga qaytib bordi. 24 Oradan ko‘p
o‘tmay, xotini Elisabet homilador bo‘ldi. U dastlabki besh oy davomida uyidan chiqmay
yurdi. U shunday derdi: 25 “Buni men uchun Egam qildi. U menga marhamat ko‘rsatib,
xalq orasida meni sharmandalikdan qutqardi.”

Iso Masihning tug‘ilishi haqida karomat

26 Elisabetning homilasi olti oylik bo‘lganda, Xudo farishta Jabroilni Jalilaning Nosira
degan shahriga, 27 Dovud avlodidan Yusuf ismli yigitga unashtirilgan bir qizga yubordi.
Qizning oti Maryam edi. 28 Farishta uning oldiga borib:

— Salom, ey Xudo yorlaqagan qiz! Egamiz sen bilandir*, — dedi.

29 Maryam farishtaning so‘zlaridan sarosimaga tushdi*. “Bunday salomlashuv nimani
bildirar ekan?” deb o‘ylanib qoldi.

30 Farishta unga dedi:

— Maryam, qo‘rqma, sen Xudodan inoyat topding. 31 Sen homilador bo‘lib, o‘g‘il
tug‘asan. Uning ismini Iso* qo‘yasan. 32 U buyuk bo‘ladi. Uni Xudoyi Taoloning O‘g‘li* deb
atashadi. Egamiz Xudo Unga bobosi Dovudning taxtini beradi. 33 U to abad Isroil xalqi*
ustidan hukmronlik qiladi, hukmronligining oxiri bo‘lmaydi.

34 — Men hali er koʻrmagan boʻlsam, bu qanday boʻladi? — deb soʻradi farishtadan
Maryam. 35 Farishta javob berdi:
— Muqaddas Ruh seni qamrab oladi, Xudoyi Taoloning qudrati seni qoplaydi. Shu
bois tugʻadigan oʻgʻling muqaddas boʻladi, U Xudoning Oʻgʻli deb ataladi*. 36 Mana,
qarindoshing Elisabet ham qariligida homilador boʻldi, u oʻgʻil tugʻadi. Homilasi olti
oylik. Odamlar esa uni bepusht deb aytardilar. 37 Xudo uchun imkonsiz narsa yoʻq!
38 — Men Egamning bandasiman. Hammasi siz aytganingizday boʻlsin, — deb javob
berdi Maryam. Shundan keyin farishta ketdi.

Maryam Elisabetni yoʻqlab boradi

39 Koʻp oʻtmay Maryam shoshilganicha Yahudiya qirlaridagi shaharga yoʻl oldi. 40 U
Zakariyoning uyiga kirib, Elisabet bilan salomlashdi. 41 Elisabet Maryamning salomini
eshitgani zahoti qornidagi bolasi oʻynoqlab ketdi. Elisabet Muqaddas Ruhga toʻlib,
42 baland ovozda shunday xitob qildi:
— Sen ayollar ichra muboraksan, qorningdagi Bola ham muborakdir! 43 Men kim
boʻlibmanki, Rabbim Masihning onasi mening huzurimga kelibdi! 44 Sening saloming
qulogʻimga yetishi bilanoq, qornimdagi bola quvonchdan oʻynoqlab ketdi. 45 Naqadar
baxtlisan! Chunki Egamiz aytganlarini amalga oshirishiga sen ishonding.
46 Maryam shunday dedi:

“Butun vujudim bilan Egamni ulugʻlayman,
47 Najotkorim Xudodan koʻnglim shod–xurram.
48 Axir, U menday arzimas bandasiga nazar soldi.
Jamiki nasllar endi meni baxtli deb ataydi.
49 Zotan, qudratli Xudo men uchun buyuk ishlar qildi,
Muqaddasdir Uning nomi.
50 Undan qoʻrqqanlarga
U nasllar osha marhamat qiladi.
51 U Oʻzining qudratini koʻrsatdi,
Yuragi takabburlarni toʻzgʻitib tashladi.
52 Hukmdorlarni taxtlaridan tushirdi,
Faqirlarni esa yuksaltirdi.
53 Ochlarni neʼmatlar ila toʻydirdi,
Boylarni esa quruq joʻnatdi.
54-55 Ota–bobolarimizga bergan vaʼdasi boʻyicha,
Ibrohimga, uning nasliga
Shafqat qilishni to abad yodida tutdi.
Quli Isroilga yordam berdi.”

56 Shunday qilib, Maryam Elisabetnikida uch oycha qoldi, keyin uyiga qaytib ketdi.

Yahyo choʻmdiruvchining tugʻilishi

57 Elisabetning oy–kuni yetib, oʻgʻil tugʻdi. 58 Qoʻni–qoʻshni va qarindoshlari
Egamizning unga koʻrsatgan buyuk marhamatini eshitib, u bilan birga quvonishdi.
59 Ular sakkizinchi kuni bolani sunnat qilgani olib borishdi*. Unga Zakariyo deb
otasining ismini qoʻymoqchi boʻlishdi. 60 Bunga bolaning onasi eʼtiroz bildirib:

— Yoʻq, ismini Yahyo qoʻyamiz, — dedi. 61 Lekin boshqalar:
— Qarindosh–urugʻing orasida bu ism bilan atalgan hech kim yoʻq–ku, — deyishdi unga.
62 Shu payt otasiga imo–ishora qilib, undan bolaga qanday ism qoʻymoqchi ekanligini soʻrashdi. 63 Zakariyo imo–ishora orqali bir taxtacha soʻradi va: “Uning ismi Yahyo boʻladi”, deb yozdi. Hamma hayron qoldi. 64 Shu payt Zakariyo yana tilga kirib, gapira boshladi va Xudoga hamdu sano aytdi.
65 Hamma qoʻshnilari hayratda qoldi, butun Yahudiya qirlarida bu voqea ovoza boʻlib ketdi. 66 Bu haqda eshitganlarning hammasi: “Ajabo, bu bola kim boʻlarkin?” deya mulohaza qilishardi. Chunki Egamizning qudrati unda namoyon edi.

Zakariyoning bashorati

67 Chaqaloqning otasi Zakariyo Muqaddas Ruhga toʻlib, bashorat qila boshladi:

68 “Isroil xalqining Xudosi — Egamizga hamdu sanolar boʻlsin!
U bizga yordamga keldi, Oʻz xalqini asoratdan xalos qildi.
69-70 Azaldan bizga vaʼda berganday,
Muqaddas paygʻambarlari orqali aytganday,
Quli Dovud xonadonidan
Bizga qudratli Najotkorni* yubordi.
71 Toki U bizni dushmanlarimizdan qutqarsin,
Bizdan nafratlanadiganlarning hammasidan xalos etsin.
72 Shunday qilib, Xudo ota–bobolarimizga iltifot ayladi,
Muqaddas ahdini yodida tutdi.
73 Bobokalonimiz Ibrohimga bergan oʻsha qasamyodiga koʻra,
74 Xudo bizni yovlarimiz qoʻlidan qutqardi,
Endi biz Unga qoʻrqmasdan xizmat qila olamiz.
75 Butun umrimiz davomida
Uning oldida muqaddas va solih boʻla olamiz.

76 Sen ham, bolajonim,
Xudoyi Taoloning paygʻambari deb atalasan.
Zero, sen Rabbimiz Masihdan oldin yurasan,
U yuradigan yoʻlni hozirlaysan.
77 Xalqiga najot topishlarini eʼlon qilasan,
Xudo ularning gunohlarini kechirishini aytasan.
78 Zero, Xudoyimiz mehr–shafqatga boy,
U samodan bizga ufq Nurini* sochadi.
79 Zulmatda, oʻlim soyasida oʻtirganlarni yoritadi,
Tinchlikka olib boradigan yoʻlni bizga koʻrsatadi.”

80 Bola ulgʻayib, ruhan kuchaydi. Isroil xalqiga xizmat qiladigan vaqti kelmaguncha, choʻlda* yashadi.

2–BOB

Iso Masihning tug‘ilishi

1 O‘sha kunlarda Qaysar* Avgust*: “Butun Rim imperiyasidagi aholi ro‘yxatga
olinsin*”, degan farmon chiqardi. 2 Bu ilk aholi ro‘yxati bo‘lib, Suriyada Kviriniyus hokim
bo‘lgan paytda o‘tkazildi*. 3 Ro‘yxatdan o‘tish uchun hamma o‘z shahriga bordi.
4 Yusuf ham Jaliladagi Nosira shahridan Yahudiyaning Baytlahm shahriga yo‘l oldi.
Bu shahar Dovud shahri edi. Yusuf Dovud xonadonidan, uning naslidan edi. 5 Yusuf
ro‘yxatdan o‘tgani Maryamni ham o‘zi bilan olib ketdi. Maryam Yusufga unashtirilgan
bo‘lib, farzand kutayotgan edi. 6 Ular o‘sha yerda bo‘lganlarida Maryamning oy–kuni
to‘ldi. 7 U o‘zining to‘ng‘ich o‘g‘lini tug‘di. Uni yo‘rgaklab, oxurga yotqizib qo‘ydi, chunki
mehmonxonada ularga joy yo‘q edi.

Cho‘ponlar va farishtalar

8 Baytlahm yaqinida cho‘ponlar bor edi. Ular tunda yaylovdagi suruvini qo‘riqlash
uchun dalada yotib qolgan edilar. 9 Ularning qarshisida Egamizning bir farishtasi paydo
bo‘ldi, Egamizning ulug‘vorligi ularning atrofini yoritib yubordi. Cho‘ponlar qattiq
vahimaga tushdilar.
10 Ammo farishta ularga shunday dedi:
— Qo‘rqmanglar! Men sizlarga Xushxabar olib keldim. Bu xabar hammaga buyuk
quvonch keltiradi. 11 Bugun Dovud shahrida* sizlar uchun Najotkor tug‘ildi. U Masihdir*,
bizning Rabbimizdir. 12 Mana, sizlarga Uning belgisi: oxurda yotgan, yo‘rgaklangan
Chaqaloqni topasizlar.
13 Birdan farishtaning yonida samo lashkari bo‘lmish son–sanoqsiz farishtalar paydo
bo‘ldi. Ular Xudoga hamdu sano aytishardi:

14 “Falak toqidagi Xudoga sharaflar bo‘lsin,
Xudodan marhamat topgan yerdagi bandalarga tinchlik kelsin!*”

15 Farishtalar osmonga ko‘tarilib ketgandan keyin, cho‘ponlar bir–biriga dedilar:
— Qani, Baytlahmga boraylik! Egamiz bizga aytgan voqea yuz berganini ko‘raylik!
16 Ular shosha–pisha bordilar, Maryam, Yusuf va oxurda yotgan Chaqaloqni ko‘rdilar.
17 Ular Chaqaloqni ko‘rib, farishta bu Chaqaloq to‘g‘risida nimalar aytganini gapirib
berdilar. 18 Cho‘ponlarning gapini eshitganlarning hammasi hayratga tushdi. 19 Maryam
esa bu so‘zlarning barini diliga tugib olib, chuqur o‘ylab yurdi.
20 Cho‘ponlar qaytib ketayotib, Xudoni ulug‘lab, Unga hamdu sanolar aytdilar. Chunki
eshitgan va ko‘rganlarining hammasi xuddi farishta aytganday sodir bo‘lgandi.

Isoga ism qo‘yiladi

21 Oradan sakkiz kun o‘tdi. Chaqaloqni sunnat qiladigan payt* keldi. Unga Iso deb ism
qo‘ydilar. Iso ona qornida paydo bo‘lmasdan oldin, farishta Unga shu ismni bergan edi.

Shimo‘nning hamdu sanosi

22-24 Musoning qonuniga ko‘ra*, Maryam poklanish kunlariga rioya qildi. Bu muddat
tugagach, Maryam bilan Yusuf Quddusga bordilar. U yerda poklanish qurbonligini
keltirib, Egamizning qonunidagi: “Ikkita kaptar yoki ikkita musicha keltirilsin” degan
amrni bajardilar*. Ular Bolani ham Egamizga taqdim qilmoqchi bo‘lib, Uni o‘zlari bilan

Quddusga olib borgan edilar. Chunki Egamizning qonunida: “Har bir to‘ng‘ich o‘g‘il Egamizga bag‘ishlanishi kerak”, deb yozilgan*.

25 O‘sha paytda Quddusda Shimo‘n degan bir odam bor edi. U solih, taqvodor odam
bo‘lib, Isroilning najot topishini intizor bo‘lib kutar edi. Muqaddas Ruh unga yor edi.
26 Muqaddas Ruh unga: “Egamiz va’da qilgan Masihni sen ko‘rmaguningcha, o‘lmaysan”,
deb ayon qilgan edi.
27 Shunday qilib, Shimo‘n Muqaddas Ruh boshchiligida Ma’badga bordi. Isoning ota–
onasi qonunda buyurilgan marosimni bajarish uchun Chaqaloqni Ma’bad hovlisiga olib
kirdilar. 28 Shunda Shimo‘n Chaqaloqni qo‘liga olib, Xudoga hamdu sano aytdi:

29 “Ey Egam, va’dangni Sen bajo aylading,
Endi tinchgina o‘lishga rozi bu quling.
30 Zero, o‘z ko‘zim ila ko‘rdim Qutqaruvchini,
31 Barcha ellar oldida hozirlagan najotingni.
32 G‘ayriyahudiylarga ayon bo‘ladigan nurdir U,
Xalqing Isroilning shuhratidir U.”

33 Yusuf ham, Maryam ham Iso haqida aytilgan bu so‘zlardan hayratga tushdilar.
34 Shimo‘n ularni duo qilib, Isoning onasi Maryamga dedi:
— Mana shu go‘dak Isroil xalqi orasida ko‘p odamlarning qulashiga va yuksalishiga
sababchi bo‘ladi. U Xudodan alomat bo‘ladi, Uni ko‘plar rad etadi. 35 Natijada ko‘plarning
sirli fikrlari oshkor bo‘ladi. Sening qalbingga ham qilich sanchiladi.
36 U yerda Xanna ismli keksa bir payg‘ambar ayol ham bor edi. U Osher qabilasidan
Paniyol degan odamning qizi edi. U turmushga chiqib, eri bilan yetti yil yashadi. 37 So‘ng
beva qolgan edi. U sakson to‘rt yil davomida beva bo‘lib*, hech qachon Ma’badni tark
etmasdi. Ro‘za tutib, ibodat qilib, kechayu kunduz Xudoga sajda qilardi. 38 Shimo‘n
Maryam va Yusufga gapirib turgan paytda Xanna ularga yaqinlashib, Xudoga
shukronalar aytdi. U Quddusning ozod qilinishini intizorlik bilan kutganlarning
hammasiga bu Bola haqida so‘zlay boshladi.
39 Yusuf bilan Maryam Egamizning qonunidagi hamma talablarni bajarganlaridan
keyin, Jalilaga, o‘z shahri Nosiraga qaytib bordilar. 40 Bola ulg‘ayib, kuchga va donolikka
to‘lib borardi. U Xudoning inoyati ostida edi.

O‘smir Iso Ma’badda

41 Isoning ota–onasi har yili Fisih bayramida* Quddusga borar edilar. 42 Iso o‘n ikki
yoshda bo‘lganda, ular yana odatdagiday bayram qilish uchun Quddusga bordilar.
43 Bayramdan keyin ular uyga qaytar ekanlar, o‘smir Iso Quddusda qoldi. Ota–onasi
esa bundan bexabar edi. 44 Ular, Iso yo‘lovchilar orasida kelyapti, deb o‘ylashdi. Bir kun
yo‘l bosganlaridan keyin, Isoni qarindosh–urug‘lari va tanish–bilishlari orasidan qidira
boshladilar. 45 Uni topa olmaganlaridan keyin, Quddusga qaytib, Isoni o‘sha yerdan
qidirdilar.
46 Uch kundan so‘ng Uni Ma’baddan topdilar. U muallimlar orasida o‘tirardi, ularning
gaplariga quloq solib, savollar berardi. 47 Isoning gaplarini eshitganlarning hammasi
Uning fahm–idrokiga va berayotgan javoblariga hayron qolardilar. 48 Ota–onasi Uni
ko‘rib, ajablandilar. Onasi Unga dedi:
— O‘g‘lim, bu nima qilganing? Otang ikkovimiz Seni qidiraverib adoyi tamom

bo‘ldik–ku!

49 — Nega Meni qidirdingizlar? — dedi Iso. — Men samoviy Otamning* uyida
bo‘lishim* kerakligini nahotki bilmagan bo‘lsangizlar?!

50 Ammo ular Isoning aytgan gapini tushunmadilar. 51 Iso ular bilan Nosiraga qaytib
ketdi. Doim ota–onasiga itoat qildi. Onasi esa bu gaplarning hammasini diliga tugib
qo‘ydi.

52 Iso ulg‘ayib, yillar o‘tgan sari dono bo‘lib borardi. U Xudoning ham, odamlarning
ham mehrini qozonardi.

3–BOB

Yahyo cho‘mdiruvchining va’zi

1 Qaysar* Tiberiy hukmronligining o‘n beshinchi yili* edi. Yahudiya viloyatida
Po‘ntiy Pilat hokim edi*. Jalila hududida Hirod*, Itureya bilan Traxonitis hududlarida
Hirodning ukasi Filip, Avilina hududida Lisaniyas hukmronlik qilar*, 2 Xanan va Kayafas
esa oliy ruhoniy edilar*.

O‘sha vaqtda cho‘lda* yashayotgan Zakariyoning o‘g‘li Yahyoga Xudoning so‘zi keldi.
3 U Iordan daryosi atrofidagi yerlarni kezib, odamlarga: “Gunohlaringizdan tavba qilib,
suvga cho‘minglar, shunda Xudo gunohlaringizni kechiradi”, deb va’z qilardi. 4 Shu
tariqa Ishayo payg‘ambar o‘z kitobida yozgan quyidagicha bashorati amalga oshdi:

> “Cho‘lda bir ovoz yangramoqda:
> «Egamizga yo‘l hozirlang,
> Unga to‘g‘ri yo‘l oching!
> 5 Har bir jarlik to‘ldiriladi,
> Har bir tog‘u tepalik pasayadi.
> Qing‘ir–qiyshiq yo‘llar rostlanadi,
> O‘nqir–cho‘nqir so‘qmoqlar tekis bo‘ladi.
> 6 Butun jonzot Xudoning najotini ko‘radi!»”*

7 Katta bir olomon suvga cho‘mdirilish uchun Yahyoning oldiga keldi. Yahyo ularga
dedi:

— Hoy, ilonlar zoti! Boshingizga kelayotgan Xudo g‘azabidan qochib qutulasiz, deb
sizlarga kim uqtirdi? 8 Bundan keyin tavbaga yarasha ish tutinglar! O‘zingizcha: “Biz
Ibrohim naslidanmiz”, deb aytishni xayolingizga ham keltirmanglar! Sizlarga shuni
aytay: Xudo mana bu toshlardan Ibrohimga avlod tiklashga qodir. 9 Hozirdanoq
daraxtlar ildizida bolta yotibdi. Yaxshi meva bermagan har bir daraxt kesilib, olovga
tashlanadi.

10 Olomon Yahyodan so‘radi:

— Unday bo‘lsa, biz nima qilishimiz kerak?

11 U javob berib, dedi:

— Kimning ikkita ko‘ylagi bo‘lsa, birini ko‘ylagi bo‘lmagan odamga bersin. Kimning
oziq–ovqati bo‘lsa, u ham ovqati yo‘qlar bilan bo‘lishsin.

12 Soliqchilardan* ba’zilari ham suvga cho‘mdirilish uchun kelib, Yahyodan:

— Ustoz, biz nima qilishimiz kerak? — deb so‘rashdi. 13 Yahyo ularga shunday javob
berdi:

— Belgilanganidan ortig‘ini odamlardan talab qilmanglar.
14 Ba’zi bir askarlar ham undan:
— Biz–chi?! Biz nima qilishimiz kerak? — deb so‘radilar. Yahyo ularga dedi:
— Birovlarni nohaq ayblab, pul orttirmanglar, maoshingiz bilan qanoatlaninglar.
15 Xalq Masihning kelishini orziqib kutardi. Ular: “Yahyo Masih emasmikin?” degan fikrni ko‘ngildan o‘tkazishardi. 16 Yahyo ularning hammasiga shunday dedi:
— Men sizlarni suvga cho‘mdiryapman. Lekin mendan ham qudratliroq bo‘lgan bir Zot ortimdan kelmoqda. Men Uning choriq iplarini yechishga ham arzimayman. U sizlarni Muqaddas Ruhga va olovga* cho‘mdiradi. 17 Uning panshaxasi qo‘lida tayyor turibdi. U O‘z xirmonini shopiradi: bug‘doyni O‘z omboriga to‘plab, somonni esa so‘nmas o‘tda yondirib yuboradi.
18 Yahyo yana ko‘p boshqa nasihatlar berib, xalqqa Xushxabarni e’lon qilardi.
19 Viloyat hukmdori* Hirodning qilmishlarini esa fosh qildi. Chunki Hirod o‘z ukasining xotini Hirodiyaga uylangan va yana boshqa yomon ishlar ham qilgandi. 20 Shunisi yetmaganday, u Yahyoni ham zindonga qamatib qo‘ydi.

Iso suvga cho‘mdiriladi

21 Butun xalq suvga cho‘mdirilayotganda, Iso ham suvga cho‘mdirildi. U ibodat qilib turganda osmon ochilib ketdi 22 va Muqaddas Ruh kaptar shaklida Uning ustiga tushib keldi. Osmondan esa: “Sen Mening sevikli O‘g‘limsan*, Sendan nihoyatda mamnunman*” degan ovoz keldi.

Isoning nasabnomasi

Isodan Zarubabelgacha

23 Iso xizmatini boshlaganda o‘ttiz yoshlarda edi. Odamlar Uni Yusufning o‘g‘li deb hisoblardilar*.

Yusuf esa — Elaxning o‘g‘li*,
24 Elax — Mattotning o‘g‘li,
Mattot — Levining o‘g‘li,
Levi — Malkiyning o‘g‘li,
Malkiy — Yannayning o‘g‘li,
Yannay — Yusufning o‘g‘li,
25 Yusuf — Mattatiyoning o‘g‘li,
Mattatiyo — Amosning o‘g‘li,
Amos — Noxumning o‘g‘li,
Noxum — Heslining o‘g‘li,
Hesli — Nagayning o‘g‘li,
26 Nagay — Maxatning o‘g‘li,
Maxat — Mattatiyoning o‘g‘li,
Mattatiyo — Shimaxning o‘g‘li,
Shimax — Yo‘sexning o‘g‘li,
Yo‘sex — Yo‘doning o‘g‘li,
27 Yo‘do — Yo‘xanonning o‘g‘li,
Yo‘xanon — Rezoning o‘g‘li,
Rezo — Zarubabelning o‘g‘li,

Zarubabel* Shaltiyolning oʻgʻli edi.

Shaltiyoldan Natangacha

Shaltiyol — Neriyning oʻgʻli,
28 Neriy — Malkiyning oʻgʻli,
Malkiy — Yiddoning oʻgʻli,
Yiddo — Qosamning oʻgʻli,
Qosam — Elmodamning oʻgʻli,
Elmodam — Gʻurning oʻgʻli,
29 Gʻur — Yoshuaning oʻgʻli,
Yoshua — Eliazarning oʻgʻli,
Eliazar — Yoʻrimning oʻgʻli,
Yoʻrim — Mattotning oʻgʻli,
Mattot — Levining oʻgʻli,
30 Levi — Shimoʻnning oʻgʻli,
Shimoʻn — Yahudoning oʻgʻli,
Yahudo — Yusufning oʻgʻli,
Yusuf — Yunamning oʻgʻli,
Yunam — Eliyaqimning oʻgʻli,
31 Eliyaqim — Maliyoning oʻgʻli,
Maliyo — Mannoning oʻgʻli,
Manno — Mattatoning oʻgʻli,
Mattato — Natanning oʻgʻli,
Natan* Dovudning oʻgʻli edi.

Dovuddan Is'hoqqacha

32 Dovud — Essayning oʻgʻli,
Essay — Obidning oʻgʻli,
Obid — Boʻazning oʻgʻli,
Boʻaz — Salmoʻnning oʻgʻli,
Salmoʻn — Naxshoʻnning oʻgʻli,
33 Naxshoʻn — Ominadavning oʻgʻli,
Ominadav — Adminning oʻgʻli,
Admin — Arniyning oʻgʻli,
Arniy — Xazronning oʻgʻli*,
Xazron — Parazning oʻgʻli,
Paraz — Yahudoning oʻgʻli,
34 Yahudo — Yoqubning oʻgʻli,
Yoqub — Is'hoqning oʻgʻli,
Is'hoq* Ibrohimning oʻgʻli edi.

Ibrohimdan Odam Atogacha

Ibrohim — Terahning oʻgʻli,
Terah — Naxoʻrning oʻgʻli,
35 Naxoʻr — Sarugʻning oʻgʻli,
Sarugʻ — Ravuning oʻgʻli,
Ravu — Palaxning oʻgʻli,

Palax — Ibirning o‘g‘li,
Ibir — Shilaxning o‘g‘li,
36 Shilax — Xenanning o‘g‘li,
Xenan — Arpaxshodning o‘g‘li,
Arpaxshod — Somning o‘g‘li,
Som — Nuhning o‘g‘li,
Nuh — Lamakning o‘g‘li,
37 Lamak — Matushalohning o‘g‘li,
Matushaloh — Xano‘xning* o‘g‘li,
Xano‘x — Yoredning o‘g‘li,
Yored — Maxaliyolning o‘g‘li,
Maxaliyol — Xenanning o‘g‘li,
38 Xenan — Eno‘shning o‘g‘li,
Eno‘sh — Shisning o‘g‘li,
Shis — Odam Atoning o‘g‘li,
Odam Ato* Xudoning o‘g‘li* edi.

4–BOB

Isoni iblis vasvasaga soladi

1 Iso Iordan daryosidan Muqaddas Ruhga to‘lib qaytdi. Ruh Uni sahroga boshlab
ketdi. 2 Sahroda Isoni iblis qirq kun vasvasaga soldi. O‘sha kunlar davomida Iso hech
narsa yemadi, oxiri och qoldi. 3 Shunda iblis Isoga dedi:
— Agar Sen Xudoning O‘g‘li* bo‘lsang, bu toshga buyur, nonga aylansin!
4 Iso unga shunday javob berdi:
— Yozilganki: “Inson faqat non bilan yashamaydi*.”
5 So‘ng Isoni iblis tepalikka* olib chiqib, bir lahzada Unga olamning barcha
shohliklarini ko‘rsatdi. 6 U Isoga dedi:
— Seni ana shu shohliklar ustidan hukmron qilaman, ularning shon–shuhratini
Senga beraman. Bularning hammasi menga berilgan, men esa istaganimga beraman.
7 Menga sajda qil, shunda hammasi Seniki bo‘ladi.
8 Iso javob berib dedi:
— Yozilganki*: “Egang Xudoga sajda qil, faqat Unga xizmat qil.”*
9 Keyin iblis Isoni Quddusga olib bordi. Uni Ma’badning eng yuqori joyiga chiqarib,
shunday dedi:
— Agar Sen Xudoning O‘g‘li bo‘lsang, O‘zingni bu yerdan pastga tashla. 10 Axir,
yozilgan–ku:

“Xudo Sen to‘g‘ringda farishtalariga amr beradi,
Farishtalar Seni qo‘riqlaydi.
11 Oyog‘ing toshga qoqilib ketmasin deya,
Farishtalar qo‘llarida Seni ko‘tarib boradi.”*

12 Iso iblisga javoban dedi:
— Yana yozilganki: “Egang Xudoni sinama.”*
13 Iblis har tomonlama Isoni vasvasaga solib bo‘lgandan so‘ng Uning yonidan ketdi,

biroq qaytib kelish uchun fursat poylab yurdi.

Iso O‘z yurtida rad qilinadi

14 Iso Ruh qudratiga to‘lib, Jalila hududiga qaytdi. U haqidagi ovoza butun atrofga
tarqaldi. 15 U sinagogalarda ta’lim berardi, hamma Uni maqtardi.
16 So‘ng Iso O‘zi ulg‘ayib o‘sgan shahri Nosiraga bordi. O‘z odati bo‘yicha Shabbat
kunida sinagogaga kirib, Muqaddas bitiklarni o‘qish uchun o‘rnidan turdi. 17 Unga
Ishayo payg‘ambarning o‘ramini uzatdilar. U o‘ramni ochib, quyidagi parchani topib
o‘qidi:

> 18 “Egamizning Ruhi meni qamradi.
> Yo‘qsillarga Xushxabar yetkazmoq uchun*
> Egam meni tanladi.
> Zindondagilarga erkin bo‘lasiz, deb aytmoq uchun,
> Ko‘rlarga, ko‘zingiz ochiladi, deb xabar bermoq uchun,
> Asirlarni ozod qilmoq uchun,
> 19 Egamning marhamat yilini ma’lum etmoq uchun
> Egam meni yubordi.”*

20 Keyin Iso o‘ramni qayta o‘radi–da, xizmatchiga berib, o‘tirdi. Sinagogadagi
barchaning ko‘zi Unga tikildi. 21 Iso ularga dedi:
— Sizlar eshitgan bu kalom shu bugun bajo bo‘ldi.
22 Hamma Isoni maqtar edi. Uning latif so‘zlariga mahliyo bo‘lib: “Nahotki bu Odam
Yusufning o‘g‘li bo‘lsa?!” deb aytishardi.
23 Iso ularga dedi:
— Bilib turibman, sizlar: “Ey tabib, o‘zingni o‘zing davolab ko‘r–chi!” degan iborani
yuzimga solmoqchisizlar. “Kafarnahumda qilgan mo‘jizalar haqida xabar topdik.
O‘shalarni O‘z shahringda ham qil”, deb aytmoqchisizlar.
24 So‘ng Iso gapida davom etib, dedi:
— Sizlarga chinini aytayin, hech qanday payg‘ambar o‘z yurtida qabul qilinmaydi.
25 Sizlarga yana bir haqiqatni aytaman: Ilyos payg‘ambar davrida* Isroil yurtida ko‘p
bevalar bor edi. Osmondan uch yilu olti oy davomida bir tomchi ham yomg‘ir yog‘madi,
butun yurtda dahshatli ocharchilik bo‘ldi. 26 Ammo Xudo Ilyosni ularning birontasiga
yubormay, faqatgina Sidon shahri yaqinidagi Zorafatda yashovchi bir bevaga yuborgan
edi. 27 Xuddi shu singari, Elishay payg‘ambar davrida* ham Isroil yurtida teri kasalligiga*
chalingan ko‘p odamlar bor edi. Ammo birontasi ham shifo topmadi, faqat Suriyalik
No‘mon shifo topdi, xolos.
28 Sinagogadagi odamlar bularni eshitgach, hammalari g‘azablanishdi. 29 O‘rinlaridan
sakrab turib, Isoni shahardan tashqariga haydab chiqarishdi. Nosira shahri tepalik
ustida joylashgan edi. Odamlar Isoni o‘sha tepalikning chetiga olib borib, jarlikka
tashlamoqchi bo‘lishdi. 30 Lekin Iso ularning orasidan o‘tib, O‘z yo‘liga ketdi.

Jinga chalingan odam shifo topadi

31 Iso Jaliladagi Kafarnahum shahriga bordi. Shabbat kunlarida xalqqa ta’lim
beradigan bo‘ldi. 32 Xaloyiq Isoning ta’limotini eshitib, hayratda qoldi, chunki U
hokimiyat bilan gapirardi.

33 Shahardagi sinagogada jinga chalingan bir odam bor edi. U ovozi boricha baqirib
dedi:
34 — Ey Nosiralik Iso! Bizni tinch qoʻy! Sen bizni halok qilgani keldingmi?! Sening
kimligingni bilaman: Sen Xudoning Azizisan!
35 Biroq Iso jinga doʻq urib:
— Jim boʻl! Undan chiqib ket! — dedi. Shunda jin hammaning koʻzi oldida haligi
odamni yerga agʻnatib, uning ichidan chiqib ketdi. Odam hech qanday zarar koʻrmadi.
36 Hamma hayratda qoldi.
— Nima boʻlyapti oʻzi?! U qudratu hokimiyat bilan buyruq berganda yovuz ruhlar
chiqib ketyapti! — deb bir–birlariga gapirardilar. 37 Iso haqidagi ovoza butun tevarak–
atrofga tarqaldi.

Iso koʻp odamlarga shifo beradi

38 Iso sinagogadan chiqib, Shimoʻnning* uyiga kirdi. Shimoʻnning qaynanasi qattiq
isitmalab yotgan edi. Isodan, kasalni koʻrib qoʻying, deb iltimos qilishdi. 39 Iso ayolning
yoniga kelib, isitmaga: “Ayolni tark et!” — deb buyruq berdi. Isitma ayolni tark etdi. Ayol
oʻsha zahoti oʻrnidan turib, ularga xizmat qila boshladi.
40 Quyosh botayotgan paytda*, odamlar turli xastalikdan azob chekayotgan
qarindosh–urugʻlarini Isoning oldiga olib keldilar. Iso hamma xastalarga qoʻlini qoʻyib,
shifo berdi. 41 Jinlar esa: “Sen Xudoning Oʻgʻlisan!”* — deb baqirganlaricha, koʻplab
odamlarni tark etardilar. Iso jinlarga doʻq urib, ularning gapirishlariga ijozat bermasdi,
chunki jinlar Isoning Masih ekanini bilishardi.

Iso sinagogalarda vaʼz qiladi

42 Tong otgach, Iso shaharni tark etib, kimsasiz bir joyga ketdi. Bir toʻda olomon Uni
izlab ortidan bordi. Ular Isoni topganlaridan soʻng: “Yonimizdan ketmang”, deb Uni olib
qolishga harakat qildilar. 43 Iso esa odamlarga shunday dedi:
— Men Xudoning Shohligi* toʻgʻrisidagi Xushxabarni boshqa shaharlarda ham eʼlon
qilishim kerak, Men shu maqsadda yuborilganman.
44 Shunday qilib, Iso yurtdagi* sinagogalarda voizlik qilishni davom ettirdi.

5–BOB

Isoning dastlabki shogirdlari

1 Bir kuni Iso Jalila koʻli* boʻyida turganda, olomon Xudoning soʻzini eshitish uchun
Isoning yonida tirband boʻldi. 2 Iso koʻl qirgʻogʻida turgan ikki qayiqni koʻrdi. Baliqchilar
qayiqdan chiqib, toʻrlarini yuvayotgan edilar. 3 Qayiqlardan biri Shimoʻnniki* edi. Iso
Shimoʻnning qayigʻiga tushib, qirgʻoqdan bir oz nariroq suzib borishni iltimos qildi.
Soʻng oʻtirib, oʻsha yerdan odamlarga taʼlim berdi. 4 Iso gapini tugatib, Shimoʻnga dedi:
— Chuqurroq yerga suzib borib, oʻlja uchun toʻrlaringizni tashlanglar.
5 Shimoʻn Isoga shunday dedi:
— Ustoz, biz tun boʻyi astoydil harakat qildik, lekin hech narsa tutolmadik. Ammo
Siz aytganingiz uchun toʻr tashlaymiz.
6 Ular toʻr tashlaganlarida, shu qadar koʻp baliq ovladilarki, hatto toʻrlari yirtila
boshladi. 7 Ular boshqa qayiqdagi oʻrtoqlariga, yordam beringlar, deb ishora qildilar.
Oʻrtoqlari yetib kelgach, ikkala qayiqni ham baliqqa toʻldirdilar, qayiqlar suvga bota

boshladi.

8 Shimoʻn* buni koʻrdi–da, Isoning oldida tiz choʻkib dedi:

— Hazrat! Mening yonimdan keting, chunki men gunohkor insonman.

9 Shimoʻn va yonidagilar bunday moʻl baliq ovidan hayratga tushgan edilar.
10 Shimoʻnning sheriklari Zabadiyo oʻgʻillari Yoqub bilan Yuhanno ham hayratda edilar.

Iso Shimoʻnga dedi:

— Qoʻrqma, bundan buyon sen insonlarni ovlaysan.

11 Ular qayiqlarini qirgʻoqqa tortdilar va hamma narsalarini qoldirib, Isoga ergashdilar.

Teri kasalligiga chalingan odamni Iso sogʻaytiradi

12 Iso bir shaharda boʻlganda, teri kasalligiga* chalingan bir odam kelib qoldi. U Isoni koʻrib, yuz tuban yerga muk tushib, yolvordi:

— Hazrat, bilaman, istasangiz, meni bu kasallikdan poklay olasiz.

13 Iso qoʻlini uzatdi va unga tekkizib:

— Istayman, pok boʻl! — dedi. Kasallik esa oʻsha zahoti ketdi. 14 Iso unga qat'iyan dedi:

— Bu haqda hech kimga ogʻiz ocha koʻrma. Borib, oʻzingni ruhoniyga koʻrsat. Poklanganingni hammaga isbot qilish uchun* Muso amr qilgan qurbonliklarni keltir*.

15 Iso toʻgʻrisidagi gap–soʻzlar esa tobora yoyilib boraverdi. Tumonat xaloyiq Uni tinglash va dardlaridan forigʻ boʻlish uchun Uning oldiga yigʻilib kelar edi. 16 U esa koʻpincha kimsasiz joylarga ketib, ibodat qilar edi.

Iso sholni sogʻaytiradi

17 Bir kuni Iso ta'lim berayotganda, Uning tinglovchilari orasida farziylar* bilan Tavrot tafsirchilari* ham oʻtirgan edilar. Ular Jalila va Yahudiyaning hamma qishloqlaridan, Quddusdan kelgan edilar. Isoda Egamizning xastalarga shifo berish qudrati bor edi*. 18 Bir nechta kishi toʻshakda yotgan bir shol odamni koʻtarib keldilar. Uni uyga — Isoning oldiga olib kirishga urindilar. 19 Lekin olomon koʻpligidan buning ilojini topolmay, uyning tomiga chiqib*, tomdan teshik ochdilar. Soʻng sholni oʻsha teshikdan toʻshagi bilan olomon oʻrtasiga — Isoning oldiga tushirdilar*.

20 Iso ularning ishonchini koʻrib, sholga dedi:

— Birodarim, gunohlaring kechirildi.

21 Tafsirchilar bilan farziylar esa oʻzlaricha shunday mulohaza qila boshladilar: "Kufrlik qilayotgan bu Odam kim oʻzi? Xudodan boshqa hech kim gunohlarni kechira olmaydi–ku!"

22 Iso ularning mulohazalarini bilib, shunday savol berdi:

— Nega bunday narsalarni oʻylaysizlar? 23 Qaysi biri osonroq? Sholga: "Gunohlaring kechirildi!" deb aytishmi, yoki: "Oʻrningdan turib yur!" deb aytishmi? 24 Inson Oʻgʻliga* yer yuzida gunohlarni kechirish hokimiyati berilgan. Hozir shuni bilib olasizlar.

Iso shunday dedi–yu, sholga:

— Senga aytaman: oʻrningdan tur! Toʻshagingni olib, uyingga bor! — deb buyurdi.

25 Shol oʻsha zahoti hammaning koʻzi oldida oʻrnidan turdi. Yotgan toʻshagini olib, Xudoni ulugʻlab, uyiga ketdi. 26 Hamma hayratga tushib, Xudoni ulugʻladi. Ular qoʻrquv ichra: "Bugun aql bovar qilmaydigan hodisani koʻrdik", deb aytardilar.

Iso Levini chaqiradi

27 Shundan so‘ng Iso u yerdan chiqib, soliqchi* Levini* ko‘rib qoldi. Levi soliq
yig‘adigan joyda o‘tirib, odamlardan soliq yig‘ayotgan edi. Iso unga:
— Ortimdan yur! — dedi. 28 Levi o‘rnidan turdi, hamma narsasini qoldirib, Isoga
ergashdi.
29 So‘ngra Levi o‘z uyida Isoning sharafiga katta ziyofat berdi. Mehmonlar orasida bir
guruh soliqchilar va boshqa odamlar bor edi. 30 Farziylar va farziylarning mazhabidan
bo‘lgan tafsirchilar norozi bo‘lib, Isoning shogirdlariga dedilar:
— Nega sizlar soliqchilaru gunohkorlar bilan birga yeb–ichib o‘tiribsizlar?
31 Iso ularga shunday javob berdi:
— Sog‘lar emas, xastalar tabibga muhtojdir. 32 Men solihlarni emas, gunohkorlarni
tavbaga chaqirgani kelganman.

Ro‘za tutish haqida savol

33 Ba’zi odamlar Isoga dedilar:
— Mana, Yahyoning shogirdlari farziylarning shogirdlari kabi, tez–tez ro‘za tutib,
ibodat qilishadi. Sizning shogirdlaringiz esa yeb–ichib yuribdilar!
34 Iso ularga dedi:
— Kuyov davrada bo‘lganda to‘yga kelgan mehmonlarni ro‘za tutishga majbur qilib
bo‘larmidi?! 35 Biroq ular kuyovdan judo bo‘ladigan kunlar keladi, ana o‘shanda ro‘za
tutadilar.
36 Iso ularga bir masalni ham aytib berdi:
— Hech kim yangi kiyimdan yirtib olib, eski kiyimga yamoq solmaydi. Aks holda,
yangi kiyim ham yirtiladi, yangi kiyimdan olingan yamoq ham eski kiyimga to‘g‘ri
kelmaydi. 37 Shuningdek, hech kim yangi sharobni eski meshga quymaydi. Chunki yangi
sharob meshni yorib yuboradi*, sharob to‘kiladi, mesh ham nobud bo‘ladi. 38 Aksincha,
yangi sharobni yangi meshga quymoq darkor*. 39 Eski sharobdan ichgan odam yangi
sharobni istamaydi. “Eskisi yaxshi”, deb aytadi.

6–BOB

Shabbat kuni to‘g‘risida savol

1 Shabbat kunlarining birida* Iso bug‘doyzordan o‘tib ketayotgan edi. Uning
shogirdlari boshoqlardan uzib olib, kaftlarida uqalab, donlarini yeyayotgan edilar*.
2 Ba’zi farziylar esa ularga dedi:
— Nega sizlar Shabbat kuni qonunga xilof ish* qilyapsizlar?
3 Iso ularga shunday javob berdi:
— Dovud hamrohlari bilan och qolganda nimalar qilganini* nahotki sizlar hech
o‘qimagan bo‘lsangiz?! 4 U Xudoning uyiga kirib, muqaddas nonlarni* yegan. Hatto
hamrohlariga ham bergan. Qonunga muvofiq esa bunday nonlarni faqat ruhoniylar
yeyishga haqli edilar–ku!
5 Iso yana dedi:
— Inson O‘g‘li Shabbat kunining ham Hokimidir.
6 Boshqa Shabbat kuni Iso sinagogaga kirib ta’lim berdi. U yerda o‘ng qo‘li qurib
qolgan bir odam bor edi. 7 Tavrot tafsirchilari bilan farziylar Isoni ayblash uchun biron
sabab topish maqsadida: “Iso Shabbat kuni bu odamga shifo berarmikan”, deb Uni

kuzatib turardilar. 8 Iso ularning bu niyatini bila turib, qo‘li shol odamga:
— O‘rningdan tur, oldinga chiq! — deb buyurdi. U oldinga chiqdi.
9 Iso yig‘ilganlarga dedi:
— Sizlarga bir savolim bor. Qonunga muvofiq Shabbat kuni yaxshilik qilish kerakmi yoki yomonlikmi? Jonni xalos qilish kerakmi yoki nobud qilishmi?*
10 Iso ularning hammasiga nazar tashlab chiqdi–da, u odamga:
— Qo‘lingni uzat! — dedi.
U odam qo‘lini uzatishi bilanoq qo‘li soppa–sog‘ bo‘lib qoldi. 11 Tafsirchilar bilan farziylar g‘azabdan jazavasi tutib, Isoni nima qilsak ekan, deb muhokama qila boshladilar.

Iso o‘n ikki havoriyni tanlaydi

12 O‘sha kunlarning birida Iso ibodat qilgani toqqa chiqdi. U tun bo‘yi Xudoga ibodat qildi. 13 Tong otgach, shogirdlarini yoniga chaqirdi va oralaridan quyidagi o‘n ikkitasini tanlab olib, ularga havoriylar deb nom berdi: 14 Shimo‘n (Iso unga Butrus deb ism berdi), uning ukasi Endrus, Yoqub, Yuhanno, Filip, Bartolomey, 15 Matto, To‘ma, Xalfey o‘g‘li Yoqub, vatanparvar* deb nom olgan Shimo‘n, 16 Yoqub o‘g‘li Yahudo va keyinchalik xiyonat qilgan Yahudo Ishqariyot.
17 Shundan so‘ng Iso ular bilan birga pastga tushib, tekis joyda to‘xtadi. Bu yerda Uning ko‘plab shogirdlari, shuningdek, butun Yahudiyadan*, Quddusdan, sohildagi Tir va Sidon hududlaridan kelgan bir talay olomon bor edi. 18 Ular Isoni tinglagani va xastaliklaridan forig‘ bo‘lgani kelgan edilar. Yovuz ruhlardan azob chekayotgan odamlar ham shifo topdilar. 19 Hamma odamlar qo‘llarini Isoga tekkizishga urinardi, chunki Undan bir kuch chiqib, hammaga shifo berardi.

Baxtlilar va baxtsizlar

20 Iso shogirdlariga qarab, dedi:

“Ey kambag‘allar, sizlar baxtlisiz!
Xudoning Shohligi sizlarnikidir.
21 Ey hozir och bo‘lganlar, baxtlisiz!
Sizlar to‘q bo‘lasizlar.
Ey yig‘layotganlar, baxtlisiz!
Sizlar quvonib kulasizlar.
22 Inson O‘g‘liga yon bosganingiz uchun
Odamlar sizdan nafratlanganlarida,
Jamiyatdan quvib, haqoratlaganlarida,
Ismingizni qoralaganlarida,
Sizlar baribir baxtlisizlar!

23 Shunday kunlar kelganda quvoning, shodlikdan sakrang. Sizlarni samoda buyuk mukofot kutmoqda. Axir, sizlarga ozor yetkazayotgan odamlarning ota–bobolari ham payg‘ambarlarga shunday qilganlar.

24 Ey boylar, holingizga voy!
Sizlar rohatingizni ko‘rib bo‘ldingizlar.
25 Ey qorni to‘qlar, holingizga voy!

Sizlar och qolasizlar.
Ey kulayotganlar, holingizga voy!
Sizlar aza tutib, faryod qilasizlar.
26 Barcha odamlar sizni maqtaganda holingizga voy.
Axir, ularning ota–bobolari
Soxta payg‘ambarlarni ham xuddi shunday maqtaganlar.

Dushmanlaringizni yaxshi ko‘ringlar

27 Ey Meni tinglayotganlar, sizlarga aytyapman: dushmanlaringizni yaxshi ko‘ringlar, sizdan nafratlanganlarga yaxshilik qilinglar. 28 Sizlarga la’nat aytganlarni duo qilinglar. Sizga ozor berganlar uchun ibodat qilinglar.
29 Bir chakkangizga ursalar, ikkinchisini ham tuting. Agar kimdir to‘ningizni tortib olsa, ko‘ylagingizni ham yechib bering. 30 Sizdan so‘raganlarning hammasiga bering. Agar kimdir narsangizni tortib olsa, «Qaytarib ber», deb talab qilmang. 31 Odamlar sizlarga nima qilishlarini istasangiz, sizlar ham ularga o‘shani qilinglar.
32 Agar sizni sevganlarnigina yaxshi ko‘rsangiz, qanday savob qilgan bo‘lasizlar?! Hatto gunohkorlar ham o‘zlarini sevganlarni yaxshi ko‘radilar. 33 Agar o‘zingizga yaxshilik qilganlargagina yaxshilik qilsangiz, qanday savob qilgan bo‘lasiz?! Hatto gunohkorlar ham xuddi shunday qiladilar. 34 Agar siz qaytarib olishga umid qilib qarz bersangiz, qanday savob qilgan bo‘lasiz?! Hatto gunohkorlar ham qancha qarzlari bo‘lsa, hammasini qaytarib olish maqsadida gunohkorlarga qarz beradilar.
35 Lekin siz dushmanlaringizni seving, ularga yaxshilik qiling, qaytarib berishini o‘ylamay, qarz bering. Shunda buyuk mukofot olib, Xudoyi Taoloning farzandlari bo‘lasizlar. Axir, Uning O‘zi ham noshukurlarga va fosiqlarga mehribon–ku!
36 Osmondagi Otangiz rahmdil bo‘lgani kabi, sizlar ham rahmdil bo‘linglar.

Boshqalarni hukm qilmanglar

37 Boshqalarni hukm qilmang, shunda Xudo ham sizlarni hukm qilmaydi. Boshqalarni ayblamang, shunda Xudo ham sizni ayblamaydi. Boshqalarni kechiring, shunda Xudo sizni kechiradi. 38 Boshqalarga bering, Xudo ham sizlarga beradi, mo‘l–ko‘l qilib beradi, bosib, silkitib to‘ldirilgan, toshib–to‘kilgan o‘lchov bilan qo‘yningizni to‘ldiradi. Sizlar qanday o‘lchov bilan o‘lchasangizlar, Xudo ham sizlarga xuddi shunday o‘lchov bilan o‘lchab beradi.”
39 Iso ularga quyidagi masalni ham aytib berdi: “Ko‘r odam ko‘rni yetaklab yura oladimi?! Ikkalasi ham chuqurga qulab tushadi–ku! 40 Shogird ustozidan ustun bo‘lmas. Ammo mukammal bilim egallagan shogird ustoziday bo‘lar.
41 Nima uchun sen birodaringning ko‘zidagi zirapchani ko‘rasan–u, o‘z ko‘zingdagi xodani sezmaysan? 42 Ko‘zingdagi xodani ko‘rmay turib qanday qilib birodaringga: «Do‘stim, kel, ko‘zingdagi zirapchani olib tashlay», deb aytasan? Hoy, ikkiyuzlamachi! Oldin ko‘zingdagi xodani chiqarib ol, shunda ko‘zing tiniq ko‘radi va birodaringning ko‘zidan zirapchani chiqara olasan.

Daraxt va uning mevasi

43 Yaxshi daraxt yomon meva bermas, yomon daraxt esa yaxshi meva bermas. 44 Har bir daraxtning qandayligi o‘z mevasidan bilinadi. Tikanzordan anjir terilmaydi, butazordan uzum uzilmaydi. 45 Yaxshi odam yuragining ezgulik xazinasidan yaxshilik chiqaradi, yomon odam yuragining yomonlik xazinasidan yomonlik chiqaradi.

Odamning dili nimaga to‘lib–toshsa, o‘sha tiliga chiqadi.

Dono va ahmoq binokor

46 Nega sizlar Meni: «Yo Rabbiy, yo Rabbiy!» deb chaqirasiz–u, ammo aytganlarimni
qilmaysizlar? 47 Mening oldimga kelgan va so‘zlarimni eshitib, ularga rioya qilgan odam
kimga o‘xshashini bilasizlarmi? 48 Uy qurayotganda, chuqur xandaq qazib, tosh ustiga
poydevor o‘rnatgan kishiga o‘xshaydi u. Sel toshib, o‘sha uyni suv bosadi, lekin uyni
qo‘zg‘ata olmaydi. Chunki uy mahkam o‘rnatilgan*. 49 Ammo Mening so‘zlarimni tinglab,
ularga rioya qilmaydigan odam uyni tuproq ustiga, poydevorsiz qurgan kishiga
o‘xshaydi. Uyni suv bosganda, uy o‘sha zahoti qulab tushadi. Uy butunlay vayron
bo‘ladi.”

7–BOB

Rim yuzboshisining imoni

1 Iso xalqqa bu so‘zlarini aytib bo‘lgandan keyin, Kafarnahum shahriga ketdi. 2 U
yerda bir Rim* yuzboshisining juda aziz xizmatkori kasal bo‘lib, o‘lim to‘shagida yotgan
edi. 3 Yuzboshi Iso to‘g‘risida eshitib qoldi va yahudiy oqsoqollarini Uning oldiga
yuborib: “Keling, xizmatkorimga shifo bering”, — deb iltimos qildi. 4 Ular Isoning yoniga
kelgach, o‘tinib yolvordilar:

— U Sizning yordamingizga munosibdir. 5 U xalqimizni yaxshi ko‘radi, bizga hatto
sinagoga ham qurib bergan.

6 Iso ular bilan birga ketdi. U uyga yaqinlashib qolganda, yuzboshi do‘stlari orqali
shunday xabar jo‘natdi:

— Hazrat, ovora bo‘lmang! Kulbamga oyoq bosishingiz uchun nomunosibman. 7 Men
o‘zimni noloyiq hisoblaganim uchun Sizning oldingizga o‘zim bormadim. Siz
buyursangiz, bas, xizmatkorim sog‘ayib ketadi. 8 Men o‘zim buyruqqa tobe odamman,
ammo mening ham qo‘lim ostida askarlarim bor. Biriga “ket” desam, ketadi, boshqasiga
“kel” desam, keladi. Biron xizmatkorimga “shuni qil” desam, qiladi.

9 Iso bu so‘zlarni eshitgach, yuzboshidan hayratlandi. U o‘girilib, orqasidan ergashib
kelayotgan olomonga dedi:

— Sizlarga shuni aytay: Men hattoki Isroil xalqi orasida ham bunday kuchli imonga
ega bo‘lgan odamni uchratmadim.

10 Yuborilganlar yuzboshining uyiga qaytib kelganlarida, xizmatkor sog‘ayib
qolganini ko‘rdilar.

Iso beva ayolning o‘g‘lini tiriltiradi

11 Oradan ko‘p vaqt o‘tmay, Iso Nain degan shaharga bordi. Uning shogirdlari* va bir
talay olomon Iso bilan birga edi. 12 Iso shahar darovozasiga yetib qolganda, vafot etgan
bir odamni olib chiqishayotganini ko‘rib qoldi. Marhum odam beva ayolning yolg‘iz o‘g‘li
ekan. Ayol bilan birga shahardan bir talay olomon chiqib kelayotgan edi. 13 Rabbimiz Iso
bu ayolni ko‘rgach, unga rahmi kelib:

— Yig‘lama! — dedi. 14 Keyin Iso yaqinlashib, tobutga qo‘lini tekkizdi. Tobutni
ko‘tarib borayotganlar to‘xtab qoldilar. Iso o‘likka:

— Ey yigit, senga aytaman: tur o‘rningdan! — dedi.

15 O‘shanda o‘lik rostlanib o‘tirdi–da, gapira boshladi. Iso uni onasiga topshirdi.

16 Hammani vahima bosdi. Odamlar: “Oramizda buyuk payg‘ambar paydo bo‘ldi, Xudo
O‘z xalqini qutqarish uchun keldi”, deb Xudoga hamdu sano aytardilar. 17 Iso haqidagi bu
xabar Yahudiyaga* va butun atrofga yoyildi.

Yahyo cho‘mdiruvchining xabarchilari

18 Yahyoga shogirdlari bo‘lib o‘tgan bu voqealar to‘g‘risida xabar berishdi. 19 Yahyo
shogirdlaridan ikkitasini chaqirib, ularni Rabbimiz Isoning oldiga shunday savol bilan
yubordi: “Keladigan Zot Sizmisiz, yoki biz boshqasini kutaylikmi?”

20 Ular Isoning oldiga borib deyishdi:

— Bizni Yahyo cho‘mdiruvchi yubordi. U Sizdan: “Keladigan Zot Sizmisiz, yoki biz
boshqasini kutaylikmi?” — deb so‘rayapti.

21 Ayni shu paytda Iso ko‘p odamlarning xastaliklariyu dardlariga shifo berayotgan,
yovuz ruhlarga chalinganlarni tuzatayotgan, ko‘plab ko‘rlarning ko‘zlarini ochayotgan
edi. 22 Iso Yahyoning shogirdlariga shunday javob berdi:

— Boringlar, ko‘rib eshitayotganlaringizni Yahyoga aytinglar: ko‘rlar ko‘rmoqda,
cho‘loqlar yurmoqda, teri kasalligiga* chalinganlar tuzalmoqda, karlar eshitmoqda,
o‘liklar tirilmoqda, yo‘qsillar Xushxabarni eshitmoqda. 23 Mendan yuz o‘girmaganlar
naqadar baxtlidir!

24 Yahyoning xabarchilari ketgandan keyin, Iso olomonga Yahyo haqida gapira
boshladi: “Sahroga nimani ko‘rgani bordingizlar? Shamolda hilpirab turgan
qamishnimi? 25 Xo‘sh, nimani ko‘rgani bordingizlar? Bashang kiyingan odamnimi? Biroq
bashang kiyinib, boy–badavlat yashaydiganlar shoh saroyida bo‘ladi–ku! 26 Unday bo‘lsa,
nimani ko‘rgani bordingizlar? Payg‘ambarnimi? Ha, sizlarga shuni aytay: sizlar
payg‘ambardan ham ulug‘ini ko‘rdingizlar! 27 U haqda shunday yozilgan:

> «Mana, Sendan oldin Men O‘z elchimni yuboryapman,
> U Sen uchun yo‘lni hozirlaydi.»*

28 Sizlarga aytamanki, butun inson zoti orasida Yahyodan ulug‘i yo‘q*. Ammo Xudoning
Shohligida eng kichik hisoblangan odam ham undan ulug‘roqdir.”

29 Yahyoni eshitgan jamiki odamlar, hatto soliqchilar* ham Xudoning yo‘li to‘g‘ri
ekanligini tan olgan edilar. Ular Yahyo tomonidan suvga cho‘mdirilgandilar. 30 Farziylar
bilan Tavrot tafsirchilari esa, Yahyo tomonidan suvga cho‘mdirilishni istamay, Xudoning
ular uchun bo‘lgan maqsadini rad qildilar.

31 Iso gapida davom etdi: “Shunday ekan, zamonimizdagi odamlarni kimga
qiyoslasam bo‘ladi? 32 Ular maydonda o‘tirgan bolalarga o‘xshaydilar. O‘sha bolalar bir–
birlariga shunday deya baqiradilar:

> «Sizlar uchun nay chaldik, ammo raqsga tushmadingiz,
> Biz oh–voh qildik, ammo sizlar yig‘lamadingiz.»

33 Yahyo cho‘mdiruvchi kelib na non yedi, na sharob ichdi. Sizlar esa: «Uni jin uribdi»,
deysizlar. 34 Inson O‘g‘li kelib, ham yedi, ham ichdi. Uni esa sizlar: «Yebto‘ymas,
sharobxo‘r, soliqchilar va gunohkorlarning do‘sti», deysizlar. 35 Ammo bilib qo‘yinglar:
Xudoning donoligini tan olganlar Uning donoligi to‘g‘ri ekanligini ko‘rsatib turibdilar.”

Gunohkor ayol Isoning oyoqlariga atir moy surtadi

36 Farziylardan biri Isoni taom yeyishga taklif qildi. Iso farziyning uyiga kirib,
dasturxon yoniga yonboshladi. 37 Shaharda gunohkor bir ayol bor edi. U: “Iso farziyning
uyida mehmonda ekan”, deb eshitdi va ganchdan* yasalgan idishda atir moy olib keldi.
38 O‘sha ayol Isoning oyoqlari tomonida turib yig‘ladi. Ayolning ko‘z yoshlari Isoning
oyoqlariga tomar edi. Ayol Isoning oyoqlarini sochlari bilan artib, o‘pa boshladi,
oyoqlariga atir moy surtdi.
39 Isoni o‘z uyiga taklif qilgan farziy buni ko‘rib: “Agar bu Odam haqiqatan ham
payg‘ambar bo‘lganda edi, Unga qo‘l tekkizgan ayolning kimligini va qanaqaligini bilgan
bo‘lardi, bu ayol gunohkor–ku”, deb ko‘nglidan o‘tkazdi.
40 Iso farziyga dedi:
— Shimo‘n, senga bir gap aytmoqchiman.
— Ayting, Ustoz! — dedi u.
41 Iso dedi:
— Ikki kishi bir odamdan qarzdor ekan: biri besh yuz kumush tanga*, ikkinchisi ellik
kumush tanga. 42 Ular qarzlarini to‘lay olmagani uchun, qarz beruvchi ikkovining ham
qarzidan kechib yuboribdi. Xo‘sh, ulardan qaysi biri qarz berganni ko‘proq yaxshi
ko‘radi?
43 Shimo‘n javob berib dedi:
— Menimcha, ko‘proq qarzi kechirilgan odam bo‘lsa kerak.
— To‘g‘ri mulohaza qilding, — dedi unga Iso. 44 Keyin Iso ayolga o‘girilib qaradi–da,
Shimo‘nga dedi:
— Mana bu ayolni ko‘ryapsanmi? Men uyingga kelganimda, oyoqlarimni yuvgani suv
bermading. U esa ko‘z yoshlari bilan oyoqlarimni yuvib, sochlari bilan artib quritdi.
45 Sen Meni o‘pib kutib olmading. Bu ayol esa, kelganimdan beri oyoqlarimni o‘pishdan
to‘xtagani yo‘q. 46 Sen boshimga zaytun moyi surtmading*, bu ayol esa oyoqlarimga atir
moy surtdi. 47 Senga aytay: bu ayolning gunohlari ko‘p edi, kechirildi. Chuqur mehrining
sababi ham shudir. Oz kechirilganning mehri oz bo‘ladi.
48 So‘ng Iso ayolga:
— Gunohlaring kechirildi, — dedi.
49 Iso bilan dasturxon atrofida yonboshlaganlar ichlarida aytardilar: “Bu kim bo‘ldiki,
hatto gunohlarni ham kechiradi–ya!”
50 Iso esa ayolga:
— Ishonching seni qutqardi, eson–omon bor, — dedi.

8–BOB

Isoga ergashgan ayollar

1 Oradan ko‘p o‘tmay, Iso shaharu qishloqlarga borib, Xudoning Shohligi to‘g‘risidagi
Xushxabarni e’lon qildi. O‘n ikki shogirdi U bilan birga edi. 2 Yovuz ruhlardan va
xastaliklardan xalos bo‘lgan bir necha ayollar ham Isoga ergashgan edilar. Bular:
Magdalalik* Maryam (uning ichidan yettita jin chiqib ketgan edi), 3 Hirodning* saroy
boshqaruvchisi Xuzasning xotini Yo‘anna, Susanna va ko‘plab boshqa ayollar edi. Ular
o‘z mol–mulklarini Iso bilan Uning shogirdlari* ehtiyojlari uchun sarf qilardilar.

Urug‘ sepuvchi haqida masal

4 Bir kuni shaharu qishloqlardan talay olomon kelib, Isoning yonida to‘plandi. Iso
shunday masal aytdi: 5 “Bir dehqon urug‘ sepgani chiqibdi. U urug‘ sepayotganda ba’zi
urug‘lar so‘qmoq yo‘l ustiga tushibdi. Odamlar urug‘larni bosibdi, qushlar cho‘qib
ketibdi. 6 Ba’zi urug‘lar toshloq joyga tushibdi. Urug‘lar ko‘karib chiqibdi–yu, ammo
namlik bo‘lmagani uchun qurib qolibdi. 7 Boshqa urug‘lar tikanlar orasiga tushibdi.
Urug‘lar bilan birga o‘sib chiqqan tikanlar urug‘larni bo‘g‘ib qo‘yibdi. 8 Yana ba’zi
urug‘lar yaxshi tuproqqa tushibdi. Ular ko‘karib chiqib, har biri yuz baravar hosil
beribdi.”

Iso bularni aytib bo‘lib, baland ovozda: “Kimning eshitar qulog‘i bo‘lsa, eshitsin!” —
dedi.

Masallarning maqsadi

9 Shogirdlar Isodan:

— Bu masalning ma’nosi nima? — deb so‘rashdi. 10 U shunday javob berdi: “Xudo
Shohligining sirlarini bilish sizlarga berilgan. Boshqalarga esa, Men hamma narsani
masallar bilan gapiraman, toki ular:

«Qarab turib, anglamasinlar,
Tinglab turib, tushunmasinlar.»*

Urug‘ sepuvchi haqidagi masalning ma’nosi

11 Bu masalning ma’nosi shu: urug‘ Xudoning kalomidir. 12 So‘qmoq yo‘l ustiga
tushgan urug‘lar shunday odamlarni bildiradi: ular kalomni eshitadilar, lekin
ishonmasliklari va najot topmasliklari uchun iblis ularning yuragidan kalomni olib
ketadi. 13 Toshloq joyga tushgan urug‘lar esa shunday odamlarni bildiradi: ular kalomni
eshitganda uni sevinch bilan qabul qiladilar. Ammo ular ildiz otmagan. Shuning uchun
ular qisqa vaqt davomida ishonadilar, sinov payti kelganda esa imondan qaytadilar.
14 Tikanlar orasiga tushgan urug‘lar shunday odamlarni bildiradiki, ular kalomni
eshitadilar, biroq umri davomidagi tashvishlar, boylik va hayot lazzatlari bunday
urug‘larni bo‘g‘ib qo‘yadi. Ularning hosili yetilmaydi. 15 Yaxshi tuproqqa tushgan
urug‘lar esa shunday kishilarni bildiradi: ular kalomni eshitib, uni ezgu, samimiy
yurakda asraydilar va sabr–toqat ila hosil beradilar*.

Yorug‘lik va qorong‘ilik haqida

16 Hech kim chiroqni yoqib, ustini idish bilan yopib qo‘ymaydi yoki chorpoya tagiga
yashirib qo‘ymaydi. Aksincha, kirganlar yorug‘likni ko‘rsin deb, uni chiroqpoyaga
qo‘yadi. 17 Axir, har qanday yashirin narsa ma’lum bo‘ladi. Har qanday sir ochilib,
yoruqqa chiqadi. 18 Shunday ekan, yaxshilab quloq solinglar: kimda bor bo‘lsa, unga
yana beriladi. Kimda yo‘q bo‘lsa, bor deb o‘ylagan narsasi ham undan tortib olinadi.”

Isoning onasi va ukalari

19 Isoning onasi bilan ukalari Uning oldiga keldilar, ammo odam ko‘pligidan Unga
yaqinlasha olmadilar. 20 Isoga:

— Onangiz bilan ukalaringiz tashqarida turishibdi, ular Sizni ko‘rishmoqchi, — deb
aytishdi.

21 Iso ularga shunday javob berdi:

— Xudoning soʻzini eshitib, unga amal qiluvchilar Mening onam va ukalarimdir.

Iso boʻronni tinchlantiradi

22 Bir kuni Iso shogirdlariga: “Koʻlning narigi tomoniga* oʻtaylik”, — dedi. Ular
qayiqqa oʻtirib, joʻnab ketdilar. 23 Suzib ketayotganlarida Iso uxlab qoldi. Koʻlda qattiq
boʻron koʻtarildi, qayiq suvga toʻla boshladi. Ular xavfli ahvolda qoldilar. 24 Shunda
shogirdlar:

— Ustoz! Ustoz! Halok boʻlyapmiz! — deb Isoni uygʻotdilar.

Iso turib shamolga va quturayotgan toʻlqinlarga doʻq urdi. Shu onda shamol tindi,
sukunat choʻkdi. 25 Iso shogirdlariga:

— Ishonchingiz qani?! — dedi.

Ular esa qoʻrquv va hayrat ichra bir–biriga shunday deyishdi:

— Bu kim boʻldi ekan–a? U hatto shamolu suvga amr beradi, ular esa boʻysunadi–ya!

Jinga chalingan odamga Iso shifo beradi

26 Iso shogirdlari bilan qayiqda Jalila koʻlining narigi qirgʻogʻidagi Gerasa* hududiga
suzib bordi. 27 Iso qirgʻoqqa chiqishi bilan Uni jinga chalingan shaharlik bir odam qarshi
oldi. Bu odam ancha vaqtdan beri kiyim kiymas edi. U uyda emas, qabriston gʻorlarida
yashardi. 28 Oʻsha odam Isoni koʻrgach, qichqirib yubordi. Oʻzini Uning oyoqlari ostiga
otib, ovozi boricha baqirdi:

— Ey Iso, Xudoyi Taoloning Oʻgʻli!* Meni tinch qoʻy! Oʻtinaman, menga azob berma!
— dedi.

29 Chunki Iso yovuz ruhga bu odamdan chiqib ketishni buyurgan edi. Koʻp marta
yovuz ruh bu odamdan ustun kelib, uni boshqarardi. Garchi bu odamning qoʻl–
oyoqlarini zanjir bilan bogʻlab qoʻriqlashgan boʻlsa ham, u zanjirni uzib tashlardi, jin esa
uni kimsasiz joylarga olib ketardi.

30 Iso jindan:

— Isming nima? — deb soʻradi.

— Ismim Tumonat*, — dedi u. Chunki bu odamning ichiga bir talay jin kirib olgan
edi.

31 Jinlar Isodan: “Bizni tubsiz chuqurlikka yubormagin”, deb yolvorib soʻradilar.
32 Shu togʻning yon bagʻrida katta bir choʻchqa podasi oʻtlab yurgan edi. Jinlar Isodan:
“Choʻchqalarning ichiga kirishimiz uchun bizga ijozat ber”, deb yolvordilar. Iso ularga
ruxsat berdi. 33 Shunda jinlar bu odamdan chiqib, choʻchqalarga kirib olishdi. Choʻchqa
podasi tik qiyalikdan koʻlga yopirilib, choʻkib ketdi.

34 Choʻchqa boquvchilar sodir boʻlgan voqeani koʻrib qochdilar. Ular boʻlib oʻtgan
hodisani shahar va qishloqlarda gapirib yurdilar. 35 Odamlar boʻlib oʻtgan voqeani
koʻrgani keldilar. Ular Isoning oldiga kelganlarida, jindan xalos boʻlgan odamni koʻrdilar.
U odam kiyingan, aqli raso holda Isoning oyoq tomonida oʻtirardi. Ular buni koʻrib,
qoʻrqib ketishdi. 36 Voqeani koʻrganlar esa jin chalgan odamning qanday qilib shifo
topganini soʻzlab berdilar. 37 Shunda Gerasa hududidan kelgan hamma odamlar qattiq
vahimaga tushib, Isoga: “Bizning hududimizdan chiqib keting”, deb iltimos qildilar. Iso
qayiqqa tushib, qaytib ketmoqchi boʻlib turganda, 38-39 jinlardan xalos boʻlgan odam
Isoga:

— Siz bilan ketay, — deb yolvordi. Iso esa:

— Uyingga qaytib bor. Xudo sen uchun nimalar qilganini aytib ber, — deb uni

jo‘natib yubordi.

U kishi borib, Iso unga qanchalar muruvvat ko‘rsatganini butun shaharga e’lon qildi.

Sog‘aygan ayol va tirilgan qiz

40 Iso ko‘lning bu qirg‘og‘iga qaytib kelganda*, xalq Uni qarshilab oldi, chunki hamma
Uni kutayotgan edi. 41 Shu payt Yair ismli bir odam kelib qoldi. U sinagoga boshlig‘i edi.
U Isoning oyog‘iga bosh urib: “Iltimos, uyimga yuring”, deb yolvordi. 42 Chunki Yairning
o‘n ikki yoshli yolg‘iz qizi o‘lim to‘shagida yotgan edi.

Iso o‘sha odam bilan ketdi. Olomon Isoni har tomondan qisib qo‘yardi. 43 Olomon
orasida o‘n ikki yildan beri qon ketishidan azob chekayotgan bir ayol ham bor edi. U
bor–budini tabiblarga sarflagan bo‘lsa ham, birontasi unga shifo bera olmagan edi.
44 Ayol Isoning orqasidan kelib, Uning kiyimi etagiga qo‘l tekkizdi. Shu zahoti qon ketishi
to‘xtadi.

45 — Menga kim tegdi? — deb so‘radi Iso. Isoga qo‘l tekkizganini hech kim tan
olmadi. Shunda Butrus* dedi:

— Ustoz, olomon Sizni o‘rab olib, siqib qo‘yganini ko‘rib turibsiz–ku!*

46 Lekin Iso dedi:

— Kimdir Menga qo‘lini tekkizdi. Ichimdan bir kuch chiqqanini sezdim.

47 Nazardan chetda qola olmasligini bilib, ayol titragancha Isoning oldiga keldi. Uning
oyoqlari ostiga o‘zini tashlab, butun xalq oldida nima sababdan Isoga qo‘lini
tekkizganini va qo‘l tekkizgan zahoti shifo topganini aytib berdi.

48 Iso unga dedi:

— Qizim*, ishonching seni sog‘aytirdi. Eson–omon bor.

49 Iso shunday deb turgan ham ediki, sinagoga boshlig‘ining uyidan kimdir kelib
unga:

— Qizingiz o‘ldi, Ustozni ovora qilmay qo‘ya qoling, — dedi. 50 Buni eshitgan Iso
sinagoga boshlig‘i Yairga dedi:

— Qo‘rqmang. Faqat ishoning, qizingiz shifo topadi.

51 Iso boshliqning uyiga kelganda, Butrus, Yuhanno, Yoqub va qizning ota–onasidan
boshqa hech kimning ichkariga kirishiga ruxsat bermadi. 52 Hamma qizcha uchun dod–
faryod qilayotgan edi*. Iso ularga dedi:

— Yig‘lamanglar, axir, qizcha o‘lmagan, u uxlab yotibdi.

53 Ular esa Isoning ustidan kuldilar, chunki qizcha o‘lganini bilardilar. 54 Iso esa
qizchaning qo‘lidan ushlab*:

— Qizaloq, tur o‘rningdan! — dedi.

55 Qizchaga jon kirdi. U shu zahoti o‘rnidan turdi. Iso: “Qizchaga ovqat beringlar”, —
deb buyurdi. 56 Qizchaning ota–onasi dong qotib qoldilar. Iso esa ularga bo‘lgan voqea
haqida hech kimga og‘iz ochmaslikni buyurdi.

9–BOB

Iso o‘n ikki havoriyni xizmatga yuboradi

1 Iso o‘n ikki havoriyni yoniga chaqirib, ularga hamma jinlarni quvib chiqarish va
kasalliklarni davolash qudrati va hokimiyatini berdi. 2 Iso ularni Xudoning Shohligini
e’lon qilishga va xastalarni shifolashga yuborar ekan, 3 shunday dedi: “Yo‘lga hech narsa
olmanglar: hassa ham, to‘rva ham, non, pul, hatto qo‘shimcha kiyim ham olmanglar.

4 Qaysi uyga kirsangizlar, o‘sha shahardan ketguningizcha shu uyda qolinglar. 5 Agar
biror shaharda sizni qabul qilmasalar, u yerdan chiqayotganingizda ularga ogohlantirish
tariqasida oyoqlaringizdagi changni qoqib ketinglar*.”
6 Havoriylar ketdilar. Qishloqma–qishloq yurib, hamma yoqda Xushxabarni e’lon
qildilar, xastalarga shifo berdilar.

Hirod sarosimaga tushadi

7 Viloyat hukmdori* Hirod* sodir bo‘layotgan ajoyibotlar haqida eshitib, esankirab
qoldi. Chunki ba’zilar: “Yahyo tirilib kelibdi”, desalar, 8 boshqalar: “Ilyos payg‘ambar*
zohir bo‘libdi”, der edilar. Yana boshqalar bo‘lsa: “Qadimgi payg‘ambarlardan boshqa
biri tirilib kelibdi”, deyishardi. 9 Hirod: “Men Yahyoning boshini oldirgan edim, ammo
menga aytishayotgan bu Odam kim bo‘ldi ekan?” deb Isoni ko‘rgisi keldi.

Iso 5000 kishini to‘ydiradi

10 Havoriylar qaytib keldilar* va qilgan hamma ishlarini Isoga aytib berdilar. Iso
faqatgina havoriylari bilan vaqt o‘tkazmoqchi bo‘lib, ularni Baytsayda shahriga* olib
ketdi*. 11 Olomon esa bu haqda xabar topib, Uning orqasidan ergashdi. Iso olomonni
yaxshi kutib oldi, ularga Xudoning Shohligi to‘g‘risida gapirdi, shifoga muhtojlarni
shifoladi.
12 Kun botib, kech kira boshladi. O‘n ikki havoriy Isoning oldiga kelib dedilar:
— Odamlarni jo‘natib yuboring, toki ular atrofdagi qishloqlarga, ovullarga borib,
o‘zlariga tunash uchun joy va yegulik topsinlar. Axir, biz kimsasiz joydamiz.
13 — Sizlar ularga ovqat beringlar! — dedi Iso.
— Beshta non va ikkita baliqdan boshqa hech narsamiz yo‘q–ku! — deya javob berdi
shogirdlar. — Nima, biz borib, shuncha odamga ovqat sotib olaylikmi?!
14 Olomon orasida taxminan besh mingga yaqin erkak bor edi. Iso shogirdlariga dedi:
— Odamlarni ellikta–ellikta qilib o‘tqazinglar.
15 Shogirdlar aytilganday qilib, hammani yerga o‘tqazdilar. 16 Iso beshta non bilan
ikkita baliqni oldi, osmonga qarab shukrona duosini o‘qidi. So‘ng bularni sindirib,
xalqqa tarqatish uchun shogirdlariga berdi. 17 Hamma yeb to‘ydi. Ortib qolgan
burdalarni yig‘ib olishganda, o‘n ikki savat chiqdi.

Butrus Isoning Masih ekanini tan oladi

18 Bir kuni Iso yolg‘iz O‘zi ibodat qilayotganda, shogirdlari kelib qolishdi. Iso ulardan:
— Xalq Meni kim deb biladi? — deya so‘radi. 19 Ular shunday javob berdilar:
— Ba’zilar Sizni Yahyo cho‘mdiruvchi deb hisoblaydilar, ba’zilar Ilyos*, boshqalari
esa, qadimgi payg‘ambarlardan biri tirilib kelgan, deb aytib yuribdilar.
20 — Sizlar–chi, Meni kim deb bilasiz? — deb so‘radi Iso.
— Siz Xudo yuborgan Masihsiz!* — deb javob berdi Butrus.

Iso O‘z o‘limi to‘g‘risida gapiradi

21 Iso shogirdlariga: “Bularni hech kimga aytmanglar, — deb qat’iy ogohlantirib
gapirdi. 22 — Inson O‘g‘li ko‘p azob chekadi. Yo‘lboshchilar, bosh ruhoniylar* va Tavrot
tafsirchilari tomonidan rad qilinib, o‘ldiriladi. Uchinchi kuni esa tiriladi.”
23 So‘ng hammaga dedi: “Kimda–kim Menga ergashishni istasa, o‘zidan kechsin va
har kuni o‘z xochini ko‘tarib*, ortimdan yursin. 24 Kim o‘z jonini asrab qolmoqchi bo‘lsa,
uni yo‘qotadi. Kim Men uchun jonini bersa, uni asrab qoladi. 25 Agar inson butun

dunyoni egallab olsa–yu, biroq o‘z hayotiga o‘zi zomin bo‘lsa, bundan unga nima foyda?!
26 Mendan va Mening so‘zlarimdan uyalmanglar! Aks holda, Inson O‘g‘li O‘zining,
samoviy Otasining va muqaddas farishtalarning ulug‘vorligida kelganda, U ham
sizlardan uyaladi. 27 Sizlarga chinini aytayin: bu yerda turganlardan ba’zilari Xudoning
Shohligini ko‘rmaguncha, o‘lmaydilar.”

Isoning qiyofasi o‘zgaradi

28 Iso bu gaplarni aytgandan keyin oradan sakkiz kun o‘tdi. U Butrusni, Yuhanno
bilan Yoqubni olib, ibodat qilgani toqqa chiqdi. 29 Ibodat paytida Isoning yuzi o‘zgardi,
kiyimlari ham ko‘zni qamashtiradigan darajada oppoq bo‘lib qoldi. 30-31 Birdaniga
Isoning oldida ikki odam paydo bo‘ldi, ularning butun borlig‘i nur taratib turardi. Bu ikki
odam Muso va Ilyos bo‘lib, Iso bilan gaplashayotgan edilar. Ular Isoning tez orada
Quddusga borishi va u yerda Xudoning rejasini amalga oshirib, olamdan o‘tishi*
to‘g‘risida suhbatlashayotgan edilar.

32 Butrus va u bilan birga bo‘lganlar qattiq uyquga ketgan edilar. Ular birdan
uyg‘onib, Isoning ulug‘vorligini va Uning yonida turgan ikki odamni ko‘rdilar. 33 Bu ikki
odam ketmoqchi bo‘lib turganda Butrus Isoga dedi:

— Ustoz, yaxshi ham shu yerda ekanmiz! Keling, uchta chayla yasaylik, bittasi Sizga,
bittasi Musoga, bittasi Ilyosga.

Ammo u nima deb aytayotganini o‘zi ham bilmas edi.

34 U shu gapini tugatmagan ham ediki, bulut paydo bo‘lib, hammalariga soya soldi.
Bulut ostida qolgan shogirdlar qo‘rqib ketdilar. 35 Bulut orasidan esa shunday ovoz
eshitildi:

— Bu Mening O‘g‘limdir, Men Uni tanladim*. Unga quloq solinglar!

36 Ovoz tingandan keyin, shogirdlar Isoning u yerda yolg‘iz qolganini ko‘rdilar.
Shogirdlar ko‘rganlarini sir saqlab, o‘sha kunlarda hech kimga aytmadilar.

Jinga chalingan bolaga Iso shifo beradi

37 Ertasi kuni Iso va Uning uch shogirdi tog‘dan tushdilar. Isoni katta olomon kutib
oldi. 38 To‘satdan olomon orasidan bir odam baqirib qoldi:

— Ustoz! Yolvoraman, o‘g‘limni ko‘rib qo‘ying! U mening yakkayu yagona o‘g‘lim!
39 Ba’zan uni jin tutib turadi. Shunda o‘g‘lim birdaniga baqirib qoladi. Og‘zidan ko‘pik
chiqquncha, jin uni dag‘–dag‘ qaltiratadi. Bolani o‘lguday charchatib, azob beradi. 40 Men
shogirdlaringizga, jinni quvib chiqaringlar, deb yolvordim, ammo ular eplay olmadilar.

41 Iso shunday javob berdi:

— Ey imonsiz va buzuq avlod! Qachongacha sizlar bilan birga bo‘lishim kerak?!
Sizlarga yana qancha toqat qilishim kerak?! O‘g‘lingni bu yerga olib kel!

42 Bola yaqinlashayotganda, jin uni yerga ag‘natib, qaltirata boshladi. Lekin Iso yovuz
ruhga do‘q urib, bolaga shifo berdi. So‘ng uni otasiga topshirdi. 43 Hamma Xudoning
qudratiga hayron qoldi.

Iso yana O‘z o‘limi haqida gapiradi

Odamlar Isoning qilayotgan ishlaridan hayratlanayotgan edilar. Shunda Iso O‘z
shogirdlariga dedi: 44 “Sizlar bu so‘zlarimni quloqlaringizga quyib olinglar! Inson O‘g‘li
odamlar qo‘liga tutib beriladi.” 45 Ammo shogirdlar bu so‘zlarni tushunmadilar. Bu
so‘zlarning ma’nosi ular uchun qorong‘i bo‘lib, uni anglamadilar. “Bu nima deganingiz?”
deb Isodan so‘rashga ham botina olmadilar.

Kim katta?

46 Shogirdlar oʻrtasida: “Oramizda eng katta kim?” degan bahs boʻldi. 47 Ularning bu
oʻy–xayollarini bilgan Iso bir bolani olib Oʻzining yoniga turgʻizdi–da, 48 ularga dedi:
— Kim bu bolani Mening nomimdan qabul qilsa, Meni qabul qilgan boʻladi. Kim Meni
qabul qilsa, Meni Yuborganni qabul qilgan boʻladi. Oralaringizdagi eng kichigingiz aslida
eng kattangizdir.

Sizga qarshi boʻlmagan — sizning tomoningizda

49 Shunda Yuhanno dedi:
— Ustoz! Biz bir odamni koʻrdik. U Sizning nomingiz bilan jinlarni quvib
chiqarayotgan ekan. U biz bilan yurmagani sababli, unga bunday qilishni man etdik.
50 — Man etmang! — dedi Iso. — Kimki sizlarga qarshi boʻlmasa, u siz tomonda.

Samariyaliklar Isoni rad qilishadi

51 Isoning osmonga koʻtariladigan kuni yaqinlashib kelarkan, U Quddusga borishga
qaror qildi. 52 Oʻzidan oldin xabarchilarni yubordi. Ular Isoning kelishiga hozirlik koʻrish
uchun Samariyaning bir qishlogʻiga kirdilar. 53 Ammo Samariyaliklar* Isoni qabul
qilmadilar, chunki U Quddusga ketayotgan edi. 54 Uning shogirdlari Yoqub bilan
Yuhanno bu vaziyatni koʻrib, shunday dedilar:
— Hazrat, istasangiz, biz: “Osmondan olov tushsin! Bularni yoʻq qilib yuborsin!” —
deb buyuramiz*. 55 Iso esa oʻgirilib qaradi–da, ularni koyidi. 56 Shundan keyin ular
boshqa qishloqqa ketdilar*.

Isoga ergashish shartlari

57 Yoʻlda ketayotganlarida, bir odam Isoga:
— Qayerga borsangiz ham, men ortingizdan boraman, — dedi. 58 Iso oʻsha odamga
shunday dedi:
— Tulkilarning uyalari bor, qushlarning inlari bor. Inson Oʻgʻlining esa bosh
qoʻyadigan joyi yoʻq.
59 Boshqa bir odamga Iso:
— Ortimdan yur! — dedi. Lekin u:
— Hazrat, ijozat bering, avval borib otamni dafn qilib kelay, — dedi. 60 Iso esa oʻsha
odamga aytdi:
— Marhumlarni ruhan oʻlik boʻlganlar* dafn qilsinlar, sen esa borib, Xudoning
Shohligini e’lon qilgin.
61 Yana boshqa biri aytdi:
— Hazrat, men Sizga ergashaman. Faqat oldin borib uydagilar bilan xayrlashishimga
ijozat bering.
62 Lekin Iso unga dedi:
— Omochni tutib, ortiga qaragan bironta odam Xudoning Shohligiga loyiq emas.

10–BOB

Shogirdlarning voizlik safari

1 Shundan keyin Rabbimiz Iso yetmish ikki* odamni tanlab oldi. Ularni ikkita–ikkita
qilib, borishni moʻljallagan har bir shaharga, har bir joyga Oʻzidan oldin joʻnatdi. 2 Iso
ularga shunday dedi: “Hosil moʻl, ammo ishchilar oz. Hosil Egasidan: «Hosilingni yigʻib

olishga yana ishchilar yubor», deb so‘ranglar. 3 Boringlar! Sizni bo‘rilar orasiga
qo‘zilarday yuboryapman. 4 O‘zlaringiz bilan hamyon, to‘rva, choriq olmanglar. Yo‘lda
odamlardan hol–ahvol so‘rashga vaqtingizni ketkizmanglar.
5 Biror xonadonga kirganlaringizda, avvalo: «Xonadoningizda tinchlik–omonlik
bo‘lsin», deb aytinglar. 6 Agar o‘sha xonadonda tinchliksevar odam yashayotgan bo‘lsa,
siz tilagan tinchlik o‘sha odamda qoladi. Bo‘lmasa, o‘zingizga qaytib keladi. 7 Bir
xonadondan boshqa xonadonga ko‘chib yurmanglar. Kirgan xonadoningizda qolinglar.
Oldingizga nima qo‘yishsa, o‘shani yeb–ichinglar. Chunki mehnatkash ish haqini olishga
munosibdir.
8 Bir shaharga kirganingizda, shahar aholisi sizlarni qabul qilsa, oldingizga
qo‘yganlarini yenglar. 9 O‘sha yerdagi xastalarga shifo berib, shahardagi odamlarga:
«Xudoning Shohligi sizlarga yaqinlashdi», deb aytinglar. 10 Ammo biron shaharga
kirganingizda sizlarni qabul qilmasalar, o‘sha shaharning shoh ko‘chalariga chiqib
shunday deb aytinglar: 11 «Ogohlantirish tariqasida shahringizdan oyoqlarimizga
yopishgan changni ham qoqib ketyapmiz*. Ammo bilib qo‘ying, Xudoning Shohligi
yaqinlashdi!» 12 Sizlarga aytamanki, qiyomat kunida o‘sha shaharning holi Sado‘m
shahrining* holidan battar bo‘ladi.

Xudoni rad etgan shaharlarning holi

13 Sening holingga voy, ey Xorazin! Sening holingga voy, ey Baytsayda! Agar sizlarda
qilingan mo‘jizalar Tir bilan Sidon shaharlarida* qilinganda edi, ular allaqachon qanorga
o‘ranib, kulga o‘tirib*, tavba qilgan bo‘lardilar. 14 Qiyomat kunida sizning holingiz Tir va
Sidonning holidan battar bo‘ladi. 15 Ey Kafarnahum! Xudo seni ko‘klarga ko‘taradi, deb
o‘ylaysanmi?! Yo‘q, U seni tubsiz chuqurlikka uloqtiradi!”
16 Iso shogirdlariga dedi: “Sizlarga quloq solgan Menga quloq solgan bo‘ladi. Sizlarni
rad qilgan Meni rad qilgan bo‘ladi. Meni rad qilgan esa Meni Yuborganni rad qilgan
bo‘ladi.”

Shogirdlar safardan qaytadi

17 Yetmish ikki shogird xursand bo‘lib safardan qaytib keldilar. Ular Isoga shunday
dedilar:
— Hazrat, biz Sizning nomingizdan buyruq berganimizda, hatto jinlar ham itoat
etyaptilar.
18 Iso ularga dedi:
— Men shaytonning osmondan yashinday tushganini ko‘rdim. 19 Men sizlarga ilonu
chayonlarni bosib ezish hokimiyatini va iblisning* butun kuch–qudratini oyoq osti qilish
hokimiyatini berganman. Hech narsa sizlarga zarar yetkazmaydi. 20 Biroq jinlar sizga
bo‘ysunayotganidan xursand bo‘lmanglar, balki nomlaringiz osmonda yozilganidan
xursand bo‘linglar!
21 Shu on Iso Muqaddas Ruhning shodligiga to‘lib, dedi: “Ey Ota, yeru osmonning
Egasi! Sen bu ishlarni donolaru idroklilardan yashirib, go‘daklarga ma’lum etganing
uchun Senga shukurlar aytaman. Ha, Ota, bu Sening ezgu xohishing edi.”
22 So‘ng Iso odamlarga dedi: “Osmondagi Otam hamma narsani Mening ixtiyorimga
topshirgan. O‘g‘ilning kimligini Otadan boshqa hech kim bilmaydi. Otaning kimligini
ham O‘g‘ildan boshqa va O‘g‘il ayon qilishni istagan odamdan boshqa hech kim
bilmaydi.”

23 Iso shogirdlariga oʻgirilib qaradi–da, ularga alohida dedi: “Sizlar koʻrayotganlarni
koʻradigan koʻzlar baxtlidir! 24 Sizlarga shuni aytay: qanchadan–qancha paygʻambarlar,
qanchadan–qancha shohlar sizlar koʻrgan voqealarni koʻrishni istaganlar, ammo
koʻrmaganlar. Sizlar eshitganlaringizni eshitishni ular istaganlar, ammo eshitmaganlar.”

Rahmdil Samariyalik haqida masal

25 Shunda Isoni sinash maqsadida kelgan Tavrot tafsirchilaridan biri turib, Unga
savol berdi:

— Ustoz, abadiy hayotga ega boʻlishim uchun men nima qilishim kerak?

26 Iso:

— Tavrotda bu toʻgʻrida nima yozilgan? Siz nima deb tushunasiz? — deb soʻradi. 27 U
kishi shunday javob berdi:

— U yerda yozilganki: “Egangiz Xudoni butun qalbingiz bilan, jonu dilingiz bilan,
butun ongingiz bilan, kuchingiz boricha seving”*, yana: “Oʻzgani oʻzingizni sevganday
seving.”*

28 Iso unga:

— Toʻgʻri javob berdingiz. Siz ham shunday qiling, ana shunda yashaysiz! — dedi.
29 Ammo u odam oʻzini oqlamoqchi boʻlib, Isodan:

— Mening yaqinim kim? — deb soʻradi. 30 Iso shunday javob berdi:

— Bir odam Quddusdan Yerixoga* borayotgan ekan, qaroqchilar qoʻliga tushib
qolibdi. Qaroqchilar uning kiyimlarini yechib olib, kaltaklab, chalajon qilib tashlab
ketibdilar. 31 Tasodifni qarangki, oʻsha yoʻldan bir ruhoniy* ketayotgan ekan. U haligi
odamni koʻribdi–yu, yoʻlning narigi chetidan oʻtib ketaveribdi. 32 Oʻsha joydan oʻtib
ketayotgan levi* ham xuddi shunday qilibdi. U yarador odamni koʻrib, yoʻlning narigi
chetidan oʻtib ketaveribdi. 33 Ammo oʻsha yerdan oʻtib ketayotgan bir Samariyalik*
yarador odamni koʻrib, unga achinib ketibdi. 34 Uning yoniga kelib, yaralariga zaytun
moyi, sharob surib*, bogʻlab qoʻyibdi. Soʻng uni oʻz uloviga mindiribdi–da,
mehmonxonaga olib kelib, uni parvarish qilibdi. 35 Ertasi kuni* ikki kumush tanga*
chiqaribdi–da, mehmonxona egasiga berib: “Unga yaxshi qarang, agar bundan ortiq
xarajat qilsangiz, qaytishimda sizga toʻlayman”, debdi. 36 Sizningcha, oʻsha uch odamdan
qaysi biri qaroqchilar qoʻliga tushgan odamning yaqini hisoblanadi?

37 Tafsirchi:

— Unga shafqat koʻrsatgan odam–da, — deb javob berdi.

— Boring, siz ham shunday qiling! — dedi unga Iso.

Iso Maryam bilan Martaning uyida

38 Iso va Uning shogirdlari yoʻlda davom etdilar. Ular bir qishloqqa kirdilar. U yerda
Marta ismli ayol Isoni uyiga taklif qildi. 39 Uning Maryam ismli bir singlisi bor edi.
Maryam Rabbimiz Isoning oyoqlari oldida oʻtirib, Uning soʻzlarini tinglar edi. 40 Marta
esa mehmon kutish bilan ovora edi.

U Isoning oldiga kelib dedi:

— Hazrat! E’tibor bermayapsizmi, singlim hamma ishni bir oʻzimga tashlab qoʻydi–
ku! Unga ayting, menga yordam bersin.

41 Rabbimiz Iso unga shunday javob berdi:

— Eh, Marta, Marta, buncha urinib tashvishlanmasang! 42 Zarur boʻlgan bittagina
narsa bor. Maryam oʻzi uchun eng yaxshisini tanladi va bu undan tortib olinmaydi.

11–BOB

Ibodat haqida

1 Bir payt Iso ibodat qilayotgan edi. Ibodatni tamom qilgach, shogirdlaridan biri Unga
dedi:
— Hazrat! Yahyo o‘z shogirdlariga ibodat qilishni o‘rgatgandi. Siz ham bizga ibodat
qilishni o‘rgating.
2 Iso ularga dedi:
— Ibodat qilayotganingizda shunday deb aytinglar:

“Ey osmondagi Otamiz!
Sening muqaddas noming ulug‘lansin.
Sening Shohliging kelsin*.
3 Kundalik rizqimizni bergin.
4 Gunohlarimizni kechirgin,
Chunki biz ham o‘zimizga qarshi gunoh qilgan har bir odamni kechiramiz.
Bizni vasvasaga duchor qilmagin*.”

5 Iso shogirdlariga dedi: “Faraz qilaylik, orangizdan birortangiz yarim kechasi
do‘stingizning oldiga borib, shunday deb iltimos qildingiz:
— Do‘stim, menga uchta non qarzga berib tur. 6 Hozir uyimga bir do‘stim kelib qoldi,
uning oldiga qo‘yadigan biron yeguligim yo‘q.
7 Ichkaridagi do‘stingiz esa sizga shunday javob berdi deylik:
— Meni bezovta qilma! Eshik qulf, bolalarim men bilan bir to‘shakda yotishibdi.
O‘rnimdan turib senga non berolmayman!
8 Men sizlarga aytaman: u sizga nonni do‘sti bo‘lganingiz uchun bermasa ham, siz uni
holi–joniga qo‘ymay so‘rayversangiz, so‘ragan narsangizni albatta sizga beradi.
9 Sizlarga aytaman: so‘rang va sizga beriladi. Izlang, topasizlar. Taqillating, eshik
ochiladi. 10 Chunki so‘ragan har bir odam oladi, izlagan topadi, taqillatganga eshik
ochiladi.
11 Orangizdan qaysi bir ota, o‘g‘li baliq so‘raganda, unga baliq o‘rniga ilon beradi?*
12 Yoki tuxum so‘raganda, unga chayon beradi? 13 Sizlar gunohkor bo‘la turib
bolalaringizga yaxshi hadyalar bera olar ekansiz, osmondagi Ota ham Undan
so‘raganlarga Muqaddas Ruhni berishga qanchalar tayyor.”

Iso va shayton

14 Bir kuni Iso soqov odamdan yovuz ruhni quvib chiqardi. Jin chiqqandan so‘ng,
soqov tilga kirdi, xalq esa hayratda qoldi. 15 Ammo oralaridan ba’zilari: “U ins–jinslar
hukmdori Baalzabulning* kuchi bilan jinlarni quvib chiqaryapti!” dedilar. 16 Boshqalar
esa Isoning Xudodan kelganini sinab ko‘rmoqchi bo‘lib, mo‘jizali alomat ko‘rsatishini
talab qildilar.
17 Iso esa ularning nima haqida o‘ylayotganini bilib turardi. U o‘sha odamlarga dedi:
“Nizo tufayli o‘z ichidan bo‘linib ketgan har bir shohlik xarob bo‘ladi, nizo tufayli
bo‘lingan xonadon barbod bo‘ladi. 18 Shu singari, shayton shohligi ham o‘zaro bo‘linib
ketsa, uning shohligi qanday tura oladi?! Sizlarning gapingizga ko‘ra, ins–jinslar
hukmdori — Baalzabul ato etgan qudrat bilan Men jinlarni quvib chiqarayotgan

emishman. 19 Agar Men jinlarni Baalzabulning kuchi bilan quvib chiqarayotgan bo‘lsam,
u holda o‘z sheriklaringiz kimning kuchi bilan jinlarni quvib chiqarishyapti? Shu
sababdan ham sheriklaringiz sizlarni hukm qiladi. 20 Agar Men jinlarni Xudoning qudrati
bilan quvayotgan bo‘lsam, demak, Uning Shohligi sizlarga ham kelgan.
21 Boshdan–oyoq qurollangan kuchli odam uyini qo‘riqlaganda, uning mol–mulki
bexatar bo‘ladi. 22 Ammo undan kuchlirog‘i hujum qilib uni yengsa, uning tayangan
barcha qurollarini tortib oladi va o‘ljasini istaganiga taqsimlab beradi. 23 Kim Men
tomonda bo‘lmasa, Menga qarshidir. Kim Men bilan birga yig‘masa, sochadi.
24 Yovuz ruh insondan chiqqandan keyin, huzur–halovat izlab, suvsiz yerlarni kezadi
va topmagach: «Chiqqan uyimga qaytib boraman», deydi. 25 Uyiga kelganda, uyni
supurilgan va yig‘ishtirilgan holda ko‘radi. 26 Shunda borib, o‘zidan ham yovuzroq
boshqa yettita ruhni chaqiradi va ular bilan uyga kirib, joylashib oladi. Oxir–oqibat o‘sha
odamning ahvoli oldingidan ham battar bo‘ladi.”

Haqiqiy baxtiyorlik

27 Iso shu gaplarni aytayotganda, olomon orasidan bir ayol baland ovozda Isoga dedi:
— Sizni qornida ko‘tarib yurgan, Sizni emizgan ayol baxtlidir!
28 Iso esa javoban shunday dedi:
— To‘g‘ri, lekin Xudoning kalomini tinglab, unga rioya qiladiganlar baxtliroqdir!

Yunus payg‘ambarning alomati

29 Isoning oldiga katta olomon yig‘ilgandan keyin, Iso so‘z boshladi: “Hozirgi nasl
qabih bir nasldir. Bu nasl alomat so‘raydi, ammo ularga Yunusning alomatidan* boshqa
alomat berilmaydi. 30 Yunus Naynavo* aholisiga alomat bo‘lgani singari, Inson O‘g‘li ham
hozirgi nasl uchun alomat* bo‘ladi. 31 Janub malikasi* qiyomat kunida o‘rnidan turib, bu
naslning odamlarini mahkum etadi. Chunki Sulaymonning dono ta’limotini tinglagani
malika dunyoning u chetidan kelgan edi. Bu yerda esa Sulaymondan ham buyukroq bir
Zot turibdi! 32 Naynavo aholisi qiyomat kunida o‘rnidan turib, bu naslni mahkum etadi.
Chunki Naynavoliklar Yunusning va’zidan keyin tavba qilganlar. Bu yerda esa Yunusdan
ham buyukroq bir Zot turibdi!

Tananing chirog‘i

33 Hech kim chiroqni yoqib, uni ko‘rinmas yerga qo‘ymaydi. Aksincha, kirganlar
yorug‘likni ko‘rsin deb, uni chiroqpoyaga qo‘yadi. 34 Tananing chirog‘i — ko‘z. Agar
ko‘zingiz yaxshi bo‘lsa, butun tanangiz yop–yorug‘ bo‘ladi. Agarda ko‘zingiz yomon
bo‘lsa, butun tanangiz zimziyo zulmat bo‘ladi. 35 Shuning uchun e’tibor bering: sizdagi
nur zulmat bo‘lmasin. 36 Agar tanangiz yop–yorug‘ bo‘lib, bironta qorong‘i joyi bo‘lmasa,
chiroqning nuri sizni yoritib turganday, badaningiz tamomila yop–yorug‘ bo‘ladi.”

Iso farziylarni va Tavrot tafsirchilarini ayblaydi

37 Iso bularni gapirib turganda, bir farziy Uni mehmonga taklif qildi. Iso uning uyiga
kirib, dasturxon yoniga yonboshladi. 38 Iso ovqatdan oldin qo‘llarini yuvmaganini* farziy
ko‘rib, ajablandi.
39 Rabbimiz Iso unga dedi: “Ey farziylar, sizlar piyolayu idishning sirtini
tozalaysizlar–u, ammo ichingiz ochko‘zlik va yovuzlikka to‘la! 40 Hoy befahmlar!
Narsaning sirtini yaratgan uning ichini ham yaratgan emasmi?! 41 Yaxshisi, idishingiz
ichidagini kambag‘allarga xayr–sadaqa qilib beringlar. Shunda hamma narsa siz uchun

halol bo‘ladi.

42 Ey farziylar, holingizga voy! Sizlar yalpiz, za’faron va har xil oshko‘kdan ushr*
berasizlar–u, ammo adolat va Xudoning sevgisini pisand qilmaysizlar! Bularning birini
bajara turib, ikkinchisini ham tashlab qo‘ymasligingiz kerak edi.
43 Ey farziylar, holingizga voy! Sizlar sinagogalarning to‘rida o‘tirishni va bozorlarda
sizlarga salom berishlarini yaxshi ko‘rasizlar. 44 Holingizga voy!* Sizlar belgisi yo‘q
qabrlarga o‘xshaysizlar. Odamlar bilmay turib o‘sha qabrlar* ustidan bosib o‘tadilar.”
45 Tavrot tafsirchilaridan biri Isoga dedi: “Ustoz, bu so‘zlaringiz bilan bizni haqorat
qildingiz!”
46 Iso esa dedi: “Ey tafsirchilar, sizlarning ham holingizga voy! Sizlar ko‘tarib
bo‘lmaydigan og‘ir yukni odamlarga yuklaysizlar–u, ularga yordam bergani o‘zlaringiz
hatto barmog‘ingizni ham qimirlatmaysizlar. 47 Holingizga voy! Sizlar ota–bobolaringiz
o‘ldirgan payg‘ambarlarga maqbaralar quryapsizlar. 48 Shu tariqa ota–bobolaringizning
qilmishlarini ma’qullaganingizni tasdiqlayapsizlar. Ular payg‘ambarlarni o‘ldirishgan
bo‘lsa, sizlar payg‘ambarlarga maqbaralar quryapsizlar! 49 Shuning uchun ham Xudo O‘z
hikmatlarida shunday degan: «Men ularga payg‘ambarlar va havoriylar yuboraman.
Ulardan ba’zilarini o‘ldiradilar, ba’zilarini esa quvg‘in qiladilar.»
50 Dunyo yaratilgandan beri hamma payg‘ambarlarning to‘kilgan qoni uchun bu nasl
jazolanadi. 51 Ular Hobilning to‘kilgan qonidan tortib, qurbongoh bilan Ma’bad orasida
o‘ldirilgan Zakariyoning* qonigacha javob berishadi. Ha, sizlarga aytib qo‘yay, bu nasl
hamma qotilliklar uchun javobgar bo‘ladi.
52 Holingizga voy, ey tafsirchilar! Sizlar ilmu ma’rifat kalitini tortib oldingizlar. Ammo
o‘zlaringiz kirmadingizlar, kirmoqchi bo‘lganlarning ham yo‘llarini to‘sdingizlar.”
53 Iso u yerdan chiqishi bilanoq*, tafsirchilar va farziylar Uni qattiq siquvga oldilar,
ko‘p savollarga javob berishga majburladilar. 54 Ular Isoni tilidan ilintirib olish uchun
fursat poylardilar.

12–BOB

Iso ikkiyuzlamachilik haqida ogohlantiradi

1 Shu orada minglab odamlar to‘planib, bir–birlarini itarib siqishayotgan edilar. Iso
avval shogirdlariga gapira boshladi: “Farziylarning xamirturushidan*, ya’ni ularning
ikkiyuzlamachiligidan* ehtiyot bo‘linglar! 2 Axir, har qanday yashirin narsa ma’lum
bo‘ladi, har qanday sir ochiladi. 3 Shu bois qorong‘ida aytganlaringiz yorug‘likda
eshitiladi, yopiq eshiklar ortida shivirlab aytganlaringizni uylarning tomi ustida baqirib
e’lon qilishadi.

Qo‘rqish va qo‘rqmaslik haqida

4 Sizlarga shuni aytay, do‘stlarim: tanani o‘ldirib, undan keyin boshqa biron narsa
qila olmaydiganlardan qo‘rqmanglar. 5 Biroq kimdan qo‘rqishingiz kerakligini sizlarga
uqtiray: Xudodan qo‘rqinglar, chunki U odamni o‘ldirib, do‘zaxga tashlashga ham qodir.
Ha, sizlarga aytaman: Xudodan qo‘rqinglar!
6 Beshta chumchuq ikki tangaga* sotiladi, shunday emasmi? Biroq bularning
birontasi ham Xudoning nazaridan chetda qolmagan. 7 Sizlarning esa hatto
boshingizdagi har bir tola sochingiz sanalgan. Qo‘rqmanglar, sizlar ko‘plab
chumchuqlardan qadrliroqsizlar.

Masihni e’tirof etish va rad qilish to‘g‘risida

8 Sizlarga yana shuni aytay: kim Meni insonlar oldida tan olsa, Inson O‘g‘li ham
Xudoning farishtalari oldida uni tan oladi. 9 Ammo kim insonlar oldida Meni rad etsa, u
ham Xudoning farishtalari oldida rad etiladi. 10 Kimki Inson O‘g‘liga qarshi so‘z aytsa,
kechiriladi. Lekin kim Muqaddas Ruhga kufrlik qilsa*, kechirilmaydi.
11 Sizlarni sinagogalarga, boshliqlar va hokimlar oldiga olib kelganlarida: «O‘zimizni
qanday himoya qilamiz, nima aytamiz», deb xavotir olmanglar. 12 Nima aytishingizni
o‘sha vaqtda sizga Muqaddas Ruh o‘rgatadi.”

Ahmoq boy haqida masal

13 Olomon orasidan kimdir Isoga aytdi:
— Ustoz, akamga ayting, otamiz bizga qoldirgan merosni men bilan bo‘lishsin.
14 — Ey inson! Kim Meni sizlarga qozi yoki meros bo‘luvchi qilib qo‘yibdi? — dedi
unga Iso. 15 So‘ng xaloyiqqa dedi:
— Ehtiyot bo‘linglar, o‘zingizni har qanday ochko‘zlikdan saqlanglar. Zero, insonning
umri mol–mulkining ko‘pligiga bog‘liq emas.
16 Iso ularga shunday masal aytdi: “Bir boy odamning dalasi mo‘l hosil beribdi. 17 Boy
ko‘nglida:
— Nima qilsam ekan, hosilimni saqlashga yetarli joyim yo‘q–ku, — deb o‘ylabdi.
18 Nihoyat, u shunday debdi:
— Endi bunday qilaman: omborlarimni buzib, kattaroqlarini quraman. Hamma don–
dunlarimni, boyliklarimni o‘sha yerda saqlayman. 19 Shunda o‘zimga o‘zim deyman:
“Ko‘p yillarga yetadigan mol–mulk to‘pladim. Endi rohatlanaman, yeb–ichaman, kayfu
safo qilaman.”
20 Ammo Xudo unga shunday debdi:
— Ey nodon! Shu tundayoq joning olinadi. Yig‘ib–tergan mol–mulking endi kimga
qoladi?!
21 Ha, o‘zi uchun boylik yiqqan, ammo Xudoning nazarida boy bo‘lmagan odamning
qismati shunday bo‘ladi.”

Tirikchilik tashvishlari haqida

22 Iso shogirdlariga shunday dedi: “Shuning uchun sizlarga aytaman:
tirikchiligingizdan xavotir olib, nima yeymiz, ustimizga nima kiyamiz, demanglar.
23 Axir, hayot ovqatdan, tana esa kiyimdan muhimroq–ku! 24 Qarg‘alarga qaranglar: ular
na ekadi, na o‘radi, na omborlari, na qo‘ralari bor. Shunga qaramay, Xudo ularning
rizqini beradi. Sizlar esa qushlardan ancha qadrlisizlar! 25 Birontangiz tashvishlanib,
umringizni bir lahzaga bo‘lsa ham uzaytira olarmidingiz?! 26 Shunday arzimas ish
qo‘lingizdan kelmas ekan, nega qolgan narsalar haqida tashvish tortasiz?
27 Nilufar gullarning qanday o‘sishiga e’tibor qiling: ular mehnat qilmaydi, ip
yigirmaydi. Ammo sizlarga aytamanki, hatto shoh Sulaymon* o‘zining shuhrat
cho‘qqisida ham o‘sha gullarning birontasiday kiyinmagan. 28 Bugun bor, ertaga esa
o‘choqqa tashlanadigan dala o‘tini Xudo shunday bezagan bo‘lsa, nahotki sizlarni
kiyintirmasa, ey imoni sustlar! 29 Nima yeymiz, nima ichamiz, deb tashvishlanib bezovta
bo‘lmanglar. 30 Xudoni bilmaydigan xalqlar hadeb bu narsalarning tashvishida yuradilar.
Lekin osmondagi Otangiz bularga muhtoj ekaningizni biladi–ku! 31 Sizlar, yaxshisi,
Xudoning Shohligi payida bo‘linglar, shunda qolgan narsalar ham sizga beriladi.

32 Ey kichik suruv, qo‘rqmanglar! Osmondagi Otangiz O‘z Shohligini sizlarga berishni
ma’qul topdi. 33 Mol–mulkingizni sotib, xayr–sadaqa beringlar. O‘zingizga eskirmaydigan
hamyonlar, samolarda bitmas–tuganmas xazina tayyorlanglar. U yerga o‘g‘ri yaqinlasha
olmaydi, xazinangizni kuya yeya olmaydi*. 34 Xazinangiz qayerda bo‘lsa, yuragingiz ham
o‘sha yerda bo‘ladi.

Hushyor xizmatkorlar

35 Har doim tayyor holda turinglar: belbog‘laringiz belingizda bog‘langan,
chiroqlaringiz yonib turgan bo‘lsin! 36 Sizlar xo‘jayinining to‘ydan qaytishini intizorlik
bilan kutgan xizmatkorlarday bo‘linglar. Xo‘jayin kelib, eshikni taqillatishi bilanoq
eshikni ochadigan bo‘linglar. 37 Xo‘jayin kelganda hushyor turgan xizmatkorlar baxtlidir!
Sizlarga chinini aytay: xo‘jayin belini bog‘lab, xizmatkorlarini dasturxonga o‘tqazadi va
ularga o‘zi xizmat qiladi. 38 Xo‘jayin yarim tunda keladimi yoki tongga yaqin keladimi,
xizmatkorlarini hushyor holda ko‘rsa, o‘sha xizmatkorlar naqadar baxtlidir!
39 Ammo shuni bilib qo‘yingki, agar uy egasi o‘g‘rining qachon kelishini bilganda edi,
uyiga buzib kirishga o‘g‘riga yo‘l qo‘ymagan bo‘lardi. 40 Shuningdek, sizlar ham tayyor
turinglar, chunki Inson O‘g‘li sizlar kutmagan vaqtda keladi.”
41 Shu payt Butrus so‘radi: “Hazrat, bu masalni faqat bizga aytyapsizmi yo
hammagami?”
42 Rabbimiz Iso shunday javob berdi: “Ishonchli va aqlli uy boshqaruvchisi kim?
Xo‘jayin bunday odamni o‘z xizmatkorlariga boshliq qilib qo‘yadi, ularga o‘z vaqtida
ovqat tarqatishni unga topshiradi. 43 Xo‘jayin uyga qaytganda o‘sha xizmatkorini
yumush ustida ko‘rsa, xizmatkor naqadar baxtlidir! 44 Sizlarga chinini aytay: xo‘jayin
o‘sha xizmatkorini butun mulki ustidan boshqaruvchi qilib qo‘yadi. 45 Bordi–yu, u
xizmatkor ko‘nglida: «Xo‘jayinim hali beri qaytib kelmaydi» deb, boshqa xizmatkorlarni
ura boshlasa, yeb–ichib, mast bo‘lsa, 46 xizmatkor kutmagan kunda, o‘ylamagan soatda
xo‘jayini kelib qoladi, xizmatkorini qattiq jazolab, boshiga sadoqatsizlarning kunini
soladi.
47 Xo‘jayinning xohishini bilgan, ammo hozirlik ko‘rmagan va uning xohishini
bajarmagan xizmatkor ko‘p kaltak yeydi. 48 Bilmay turib jazoga munosib ish qilgan
xizmatkor esa ko‘p kaltaklanmaydi. Kimga ko‘p berilgan bo‘lsa, undan ko‘p so‘raladi.
Kimga ko‘p ishonib topshirilgan bo‘lsa, undan ko‘proq talab qilinadi.

Iso — bo‘linishning sababchisi

49 Men yer yuziga olov keltirgani keldim. Qaniydi, bu olov hoziroq alanga olib ketsa!
50 Men chuqur qayg‘u–alamlarga botaman. Bu amalga oshmaguncha qattiq iztirob
chekaman! 51 Meni yer yuziga tinchlik olib kelgan, deb o‘ylaysizlarmi? Yo‘q, deb
aytaman, bo‘linish olib kelganman! 52 Zero, bundan buyon bir uyda yashagan besh kishi
bo‘linadi, uchtasi ikkitasiga va ikkitasi uchtasiga qarshi bo‘ladi. 53 Ha, ular bo‘linadi:

Ota o‘g‘liga qarshi chiqadi,
O‘g‘il otasiga qarshi bo‘ladi,
Ona qiziga qarshi chiqadi,
Qiz onasiga qarshi bo‘ladi,
Qaynana keliniga qarshi chiqadi,
Kelin qaynanasiga qarshi bo‘ladi.”

Zamon alomatlari va abadiylik

54 Iso olomonga shunday dedi: “G‘arbda bulut ko‘tarilib kelayotganini
ko‘rganingizda, sizlar darrov: «Hozir yomg‘ir yog‘adi», deb aytasizlar. Shunday bo‘ladi
ham. 55 Janubdan shamol esayotganini ko‘rganingizda, sizlar: «Jazirama issiq bo‘ladi»,
deb aytasizlar. Shunday bo‘ladi ham. 56 Ey ikkiyuzlamachilar! Sizlar yeru osmonning
avzoyiga qarab, ob–havoni aniqlay olasizlar–ku! Nima uchun hozirgi zamonni talqin qila
olmaysizlar?! 57 Nima to‘g‘riligini nega o‘zingiz qaror qila olmaysizlar? 58 Shunday ekan,
birontasi bilan da’volashib, u bilan birga mahkamaga ketayotganingizda, yo‘lda u bilan
yarashishga harakat qiling. Agar shunday qilmasangiz, u sizni qozining oldiga sudrab
boradi, qozi sizni zindonbonga topshiradi. Zindonbon esa sizni zindonga tashlaydi.
59 Sizlarga shuni aytay: qarzingizni oxirgi tiyinigacha to‘lamaguningizcha, u yerdan
chiqolmaysiz.”

13–BOB

Tavba va halokat haqida

1 O‘sha vaqtda ba’zi odamlar kelib, Isoga hokim Pilat* o‘ldirgan Jalilaliklar haqida
xabar qilishdi. Jalilaliklar qurbonlik keltirayotgan paytda Pilat ularni o‘ldirib, qonlarini
so‘yilgan qurbonliklar qoniga aralashtirib tashlagan edi.
2 Iso xabarchilarga dedi: “Sizningcha, bu Jalilaliklar boshqa hamma Jalilaliklarga
qaraganda ko‘proq gunoh qilganlari uchun shunchalik jafo chekdilarmi? 3 Sizga yo‘q,
deyman. Lekin tavba qilmasangizlar, hammalaringiz ular kabi halok bo‘lasizlar. 4 Yoki
Siloam qishlog‘idagi* minora qulaganda nobud bo‘lgan o‘n sakkiz kishini olaylik.
Sizlarning fikringizcha, o‘sha nobud bo‘lganlar Quddusda yashaydigan qolgan hamma
odamdan ko‘ra, ko‘proq gunoh qilgan edilarmi? 5 Sizlarga, yo‘q, deb aytaman. Lekin
tavba qilmasangizlar, hammangiz ular kabi halok bo‘lasizlar.”

Hosilsiz anjir daraxti haqida masal

6 Shundan keyin Iso shu masalni aytib berdi: “Bir odamning uzumzoriga anjir daraxti
ekilgan ekan. O‘sha odam kelib, anjir daraxtidan meva izlabdi, ammo topa olmabdi. 7 U
bog‘bonga debdi:
— Menga qara, uch yildirki, men mana bu anjir daraxtidan meva izlayman, ammo
shu paytgacha bironta meva topa olmadim. Uni kesib tashla! Bekorga yerni egallab
turishining nima keragi bor?!
8 Bog‘bon esa shunday javob beribdi:
— Xo‘jayin, daraxtingiz bu yil ham tursin. Men uning atrofini chopib, go‘ng solay.
9 Balki kelgusi yil meva berar. Agar bermasa, unda kesib tashlaymiz.”

Shabbat kuni Iso bukri ayolga shifo beradi

10 Shabbat kuni Iso sinagogalarning birida ta’lim berayotgan edi. 11 U yerda o‘n
sakkiz yildan beri jinga chalingan bir ayol bor edi. U ikki bukilib qolgan bo‘lib, qaddini
umuman rostlay olmasdi. 12 Iso uni ko‘rgach, yoniga chaqirib dedi:
— Ey ayol, sen dardingdan xalos bo‘lding!
13 So‘ng ayolga qo‘llarini qo‘ydi, shu zahoti ayolning qaddi tiklandi–qoldi. Ayol
Xudoga hamdu sanolar aytdi.
14 Iso Shabbat kuni xastaga shifo bergani uchun sinagoga boshlig‘i achchiqlanib,

olomonga shunday dedi:

— Ishlash uchun olti kun bor. Shifo topmoqchi bo‘lsangiz, Shabbatdan boshqa kuni kelinglar.

15 Rabbimiz Iso unga javoban dedi:

— Ey ikkiyuzlamachilar! Sizlar o‘zlaringiz ham Shabbat kuni ho‘kizingiz yoki eshagingizni oxurdan yechib, sug‘organi olib borasizlar–ku! 16 Bu esa Ibrohimning qizi, axir! Shayton o‘n sakkiz yildan beri uni bog‘lab qo‘ygan edi. Uni Shabbat kuni kishanlaridan ozod qilish nahotki mumkin bo‘lmasa?!

17 Iso shu gaplarni aytganda, Uning hamma raqiblari sharmanda bo‘ldilar. Jamiki olomon esa Iso qilgan ajoyib ishlardan xursand edi.

Xantal urug‘i haqida masal

18 Iso dedi: “Xudoning Shohligi nimaga o‘xshaydi? Uni nimaga o‘xshatsam bo‘ladi? 19 Xudoning Shohligi bir odam o‘z bog‘iga ekkan xantal urug‘iga* o‘xshaydi. Urug‘ unib–o‘sib, daraxt bo‘ladi, qushlar uning shoxlariga uya quradi.”

Xamirturush haqida masal

20 Iso yana shunday dedi: “Xudoning Shohligini yana nimaga o‘xshatsam bo‘ladi? 21 Xudoning Shohligi xamirturushga o‘xshaydi. Ayol bir bo‘lak xamirturushni bir tog‘ora* unga qorsa ham, hamma xamir oshadi.”

Najot eshigi tordir

22 Iso Quddusga yo‘l oldi va shaharu qishloqlarga borib, ta’lim berar edi. 23 Bir odam Undan so‘radi: “Hazrat, nahotki sanoqli odam najot topsa?!”

Iso shunday javob berdi: 24 “Tor eshikdan kirishga jon–jahdingiz bilan harakat qilinglar. Sizlarga shuni aytay: ko‘p odam ichkari kirishga intiladi, ammo kira olmaydi. 25 Uy egasi o‘rnidan turib eshikni yopganda, sizlar tashqarida qolib eshikni taqillatasizlar va:

— Hazrat, bizga eshikni oching! — deb aytasizlar. U esa sizlarga:

— Kimligingizni va qayerdan kelganingizni bilmayman! — deb javob beradi. 26 Shunda sizlar:

— Axir, biz Siz bilan birga yeb–ichganmiz! Ko‘chalarimizda ta’lim bergansiz! — deb aytasizlar. 27 Ammo U sizlarga deydi:

— Men sizlarni tanimayman! Qayerdanligingizni ham bilmayman! Yo‘qolinglar oldimdan, ey badkirdorlar!

28 Sizlarni tashqariga quvib chiqarishganda, qattiq pushaymon bo‘lasizlar, fig‘on chekasizlar, chunki Ibrohim, Is’hoq, Yoqub* va barcha payg‘ambarlar Xudoning Shohligida ekanini ko‘rasizlar. 29 Shundan keyin sharqu g‘arbdan, shimolu janubdan odamlar kelib, Xudoning Shohligida ziyofatga o‘tiradilar. 30 Shunda oxirgi bo‘lgan ba’zi odamlar birinchi bo‘ladilar, birinchi bo‘lgan ba’zilar esa oxirgi bo‘ladilar.”

Isoning Quddus uchun nolasi

31 Shu paytda farziylardan ayrimlari Isoning oldiga kelib deyishdi:

— Bu yerdan ketishingiz kerak. Hirod* Sizni o‘ldirmoqchi.

32 Iso ularga shunday dedi:

— Borib u tulkiga aytinglar: “Eshitib ol, Men bugun ham, ertaga ham jinlarni quvib, xastalarga shifo beraman. Uchinchi kuni esa ishimni tugataman.” 33 Ammo shunday

bo‘lsa ham, Men bugun, ertaga va indinga O‘z yo‘limdan qolmasligim kerak. Axir, payg‘ambar Quddusdan tashqarida o‘ldirilishi mumkin emas. 34 Eh Quddus, Quddus! Payg‘ambarlarni qatl etib, huzuriga yuborilganlarni toshbo‘ron qiluvchi shahar! Tovuq o‘z jo‘jalarini qanotlari ostiga qanday to‘plasa, Men ham sening xalqingni bir necha marta shunday to‘plamoqchi bo‘ldim. Lekin sen istamading. 35 Ey Quddus aholisi, sizning Ma’badingiz huvullab qoladi. Sizga shuni aytay: “Egamiz nomidan keladigan Inson baraka topsin”*, deb aytmaguningizcha, Meni ko‘rmaysizlar.

14–BOB

Iso Shabbat kuni xastaga shifo beradi

1 Bir Shabbat kuni Iso farziylar rahnamolaridan birining uyiga mehmonga bordi. Uni diqqat bilan kuzatib o‘tirishardi. 2 Isoning oldiga istisqo dardidan qo‘l–oyoqlari shishib ketgan bir odam kelib qoldi. 3 Iso Tavrot tafsirchilaridan va farziylardan so‘radi:

— Qonunimizga ko‘ra, Shabbat kuni odamga shifo berish mumkinmi yoki yo‘qmi?

4 Ular esa indamadilar.

Iso xasta odamga qo‘l tekkizib, shifo berdi va uni jo‘natib yubordi. 5 So‘ng ularga dedi:

— Birortangizning farzandingiz* yoki molingiz quduqqa tushib ketsa, Shabbat kuni bo‘lishiga qaramay, uni darhol chiqarib olmaysizlarmi?!

6 Ular esa bu gapga biron javob topa olmadilar.

Kamtarlik va mehmondo‘stlik

7 Mehmonlar to‘rdan joy tanlashga intilayotgan edilar. Iso buni ko‘rib, shunday masal aytdi: 8 “Sizni to‘y ziyofatiga taklif qilishganda, to‘rga chiqib olmang. Mehmonga chaqirilganlar orasida sizdan ham hurmatliroq boshqasi bo‘lishi mumkin. 9 Ikkovingizni taklif qilgan mezbon kelib, sizga:

— Joyingizni bu odamga bo‘shatib bering, — deb aytishi mumkin. Shunda siz xijolat tortib, poygakda o‘tirishga majbur bo‘lasiz. 10 Shuning uchun taklif etilganingizda, poygakda o‘tiring, toki mezbonning o‘zi kelib sizga:

— Do‘stim, iltimos to‘rga chiqing, — deb aytsin. Shunda boshqa mehmonlar ko‘zida sizning hurmatingiz oshadi. 11 Zotan, o‘zini o‘zi yuksaltirgan kamsitiladi, o‘zini past tutgan esa yuksaltiriladi.”

12 Iso O‘zini taklif qilgan xonadon sohibiga aytdi:

— Tushki yo kechki ziyofat berganingizda, do‘stlaringizni yoki aka–ukalaringizni, qarindosh–urug‘laringizni yo bo‘lmasa, boy qo‘shnilaringizni taklif qilmang. Aks holda, ular ham sizni mehmonga chaqirib, qilgan yaxshiligingizni qaytaradilar. 13 Aksincha, ziyofat berganingizda, kambag‘al–qashshoqlarni, cho‘loq, shollarni, ko‘rlarni taklif qiling. 14 Shunda baxtli bo‘lasiz. Chunki ular qilgan yaxshiligingizni qaytara olmasalar–da, solihlar tirilgan zamonda buning savobini ko‘rasiz.

To‘kin ziyofat haqida masal

15 Dasturxon atrofida o‘tirgan mehmonlardan biri Isoning bu so‘zlarini eshitib, Unga dedi:

— Xudoning Shohligida ziyofat yeydigan kishi baxtlidir!

16 Iso o‘sha odamga shunday dedi: “Bir odam katta ziyofat tayyorlab, ko‘pchilikni

taklif etibdi. 17 Ziyofat vaqti boʻlganda:
— Kelinglar, dasturxon tayyor boʻldi, — deb mehmonlarni chaqirgani xizmatkorini yuboribdi. 18 Ammo taklif qilinganlarning hammasi birday uzr soʻray boshlabdilar. Birinchisi unga debdi:
— Men yer sotib olgan edim, oʻsha yerni koʻrgani borishim kerak. Iltimos, meni kechiring.
19 Boshqasi esa:
— Men besh juft hoʻkiz sotib oldim, ularni sinagani ketyapman. Iltimos, meni kechiring, — debdi. 20 Yana boshqasi:
— Men yangi uylandim, shuning uchun bora olmayman, — debdi.
21 Xizmatkor qaytib kelib, xoʻjayiniga axborot beribdi. Shunda uy sohibi gʻazablanib, xizmatkoriga buyuribdi:
— Hoziroq shahar koʻchalarini, yoʻlaklarini aylanib chiq. Qashshoq, choʻloq, koʻr va shollarni bu yerga olib kel.
22 Bir oz vaqtdan keyin xizmatkor shunday deb keldi:
— Xoʻjayin, buyurganlaringizni bajardim, lekin yana boʻsh joy qoldi.
23 Shunda xoʻjayin xizmatkoriga aytibdi:
— Yoʻllarga, yoʻlaklarga bor, odamlarni koʻndirib olib kel, toki uyim toʻlsin.
24 Sizlarga aytay: taklif qilinganlarning birortasi ham ziyofat taomlaridan aslo totib koʻrmaydi*.”

Shogirdlikning qiymati

25 Katta bir olomon Isoga ergashib ketayotgan edi. Iso ularga qarab dedi: 26 “Menga ergashgan odam Meni ota–onasidan, xotini va bola–chaqasidan, aka–uka va opa–singillaridan, hatto oʻz jonidan ortiq sevishi kerak*, aks holda, u Mening shogirdim boʻlolmaydi. 27 Oʻz xochini koʻtarib*, ortimdan yurmagan odam ham Mening shogirdim boʻlolmaydi.
28 Sizlardan birortangiz minora qurmoqchi boʻlsangiz, uni bitirish uchun mablagʻ yetarlimi, deb oldindan xarajatini hisoblab chiqmaysizmi? 29 Aks holda, siz poydevor yotqizasiz–u, minorani bitkaza olmaysiz. Buni koʻrganlarning hammasi ustingizdan kulib, shunday deb aytishadi: 30 «Bu odam qurilishni boshladi, ammo bitira olmadi.»
31 Yoki qaysi shoh boshqa bir shohga qarshi urushga chiqishdan avval oʻtirib: «Dushman yigirma ming askari bilan menga qarshi kelyapti, men oʻn ming askarim bilan unga bas kela olamanmi?» deb oʻylamaydimi?! 32 Kuchi yetmasa, dushman hali uzoqdaligida uning oldiga elchi yuborib, sulh tuzaylik, deb iltimos qiladi. 33 Xuddi shu singari, bor mol–mulkingizdan kechmasangiz, birontangiz ham Mening shogirdim boʻla olmaysiz.

Tuz haqida

34 Tuz — yaxshi narsa. Lekin tuz oʻz taʼmini yoʻqotsa, uni yana qanday shoʻr qilib boʻladi?! 35 Bunday tuz yerga ham, goʻngga ham yaramaydi, uni tashlab yuboradilar. Kimning eshitar qulogʻi boʻlsa, eshitsin!”

15–BOB

Adashgan qo‘y va yo‘qolgan tanga haqida masal

1 Hamma soliqchilar* va gunohkorlar Isoning ta’limotini tinglash uchun kelar edilar.
2 Farziylar bilan Tavrot tafsirchilari: “Ana, U gunohkorlarni qabul qilib, ular bilan birga
yeb–ichyapti”, deb ming‘irlab norozi bo‘ldilar. 3 Iso esa ularga quyidagi masalni aytib
berdi: 4 “Sizlarning orangizda kimningdir yuzta qo‘yi bo‘lsa–yu, bittasi adashib qolsa,
to‘qson to‘qqiztasini yaylovda qoldirib, adashgan qo‘yni topmaguncha qidirmaydimi?
5 O‘sha qo‘yini topganda, xursand bo‘lib yelkasiga ko‘tarib oladi. 6 U uyiga kelib,
do‘stlarini, qo‘shnilarini chaqiradi va ularga:

— Men yo‘qolgan qo‘yimni topdim! Xursandchiligimga sherik bo‘linglar, — deb
aytadi.

7 Sizlarga aytamanki, xuddi shu singari, tavbaga hojat sezmagan to‘qson to‘qqizta
solih odamdan ko‘ra, tavba qilgan bitta gunohkor uchun samoda ko‘proq shodlik bo‘ladi.

8 Yoki qaysi bir ayolning o‘nta kumush tangasi* bo‘lsa–da, bittasini yo‘qotib qo‘ysa, u
chiroq yoqib tangani topmaguncha uyini supurib–sidirib sinchiklab qidirmaydimi?!
9 Tangani topgach, dugonalarini va qo‘shnilarini chaqirib:

— Men yo‘qolgan tangamni topdim! Xursandchiligimga sherik bo‘linglar, — deydi.

10 Sizlarga aytamanki, xuddi shu singari, tavba qilgan bitta gunohkor uchun
Xudoning farishtalari huzurida shodlik bo‘ladi.”

Darbadar o‘g‘il haqida masal

11 Iso yana dedi: “Bir odamning ikki o‘g‘li bor ekan. 12 Ularning kichigi otasiga:

— Ota, mol–mulkingizdan menga tegishli qismini bering, — debdi.

Otasi mol–mulkini ikki o‘g‘liga bo‘lib beribdi.

13 Oradan ko‘p o‘tmay, kichik o‘g‘il bor narsasini yig‘ishtirib, uzoq bir mamlakatga
ketibdi. U yerda shaloq yashab, mol–dunyosini ko‘kka sovuribdi. 14 Borini isrof
qilgandan keyin, o‘sha mamlakatda og‘ir qahatchilik boshlanibdi. Yigit ham muhtojlikda
qolibdi. 15 U borib, o‘sha mamlakat fuqarolaridan biriga yollanibdi. U odam esa yigitni
o‘z dalasidagi cho‘chqalarni* boqishga yuboribdi. 16 Yigit cho‘chqalar yeydigan qo‘zoqlar
bilan qornini to‘ydirishga ham zor bo‘libdi, lekin unga shuni ham ravo ko‘rishmas ekan.

17 Nihoyat yigit aqlini yig‘ib olib, o‘ziga o‘zi debdi:

— Otamning qanchadan–qancha yollanma ishchilarining noni oshib–toshib yotibdi,
men esa bu yerda ochlikdan o‘lyapman. 18 Endi otamning oldiga borib, unga shunday
deb aytaman: “Ota, men Xudoga va sizga qarshi gunoh qildim. 19 Endi sizning o‘g‘lingiz
deb atalishga loyiq emasman. Meni yollanma ishchilaringiz qatoriga qabul qiling.”

20 Yigit otasi oldiga ravona bo‘libdi. Yigit hali uzoqda kelar ekan, otasi uni ko‘rib,
o‘g‘liga rahmi kelibdi. U yugurib borib, o‘g‘lini quchoqlab, o‘pibdi.

21 Keyin o‘g‘li otasiga aytibdi:

— Ota, men Xudoga va sizga qarshi gunoh qildim. Endi sizning o‘g‘lingiz deb
atalishga loyiq emasman.

22 Otasi esa xizmatkorlariga buyuribdi:

— Tez bo‘linglar, eng nafis to‘n keltirib yelkasiga yopinglar, qo‘liga uzuk taqinglar,
oyoqlariga choriq kiygizinglar. 23 Bo‘rdoqi buzoqni olib chiqib, so‘yinglar. Yeb–ichaylik,
xursandchilik qilaylik. 24 Chunki bu o‘g‘lim men uchun o‘lgan edi, endi tirildi, yo‘qolgan
edi, endi topildi.

Shunday qilib, xursandchilik qila boshlabdilar. 25 Katta o‘g‘il shu paytda dalada ekan. Qaytayotib uyga yaqinlashganda, qulog‘iga musiqa va o‘yin–kulgi sadolari eshitilibdi. 26 Xizmatkorlardan birini chaqirib:

— Nima gap? — deb so‘rabdi.

27 — Ukangiz qaytib keldilar. Otangiz uni sog‘–salomat ko‘rgani uchun bo‘rdoqi buzoqni so‘ydilar, — deb javob beribdi xizmatkor.

28 Shunda katta o‘g‘ilning jahli chiqibdi, ichkariga kirishdan bosh tortibdi. Otasi esa tashqariga chiqib, o‘g‘liga o‘tinib gapiribdi. 29 Ammo u otasiga shunday javob beribdi:

— Menga qarang! Shuncha yildan beri sizga qulday ishlab kelaman. Birorta gapingizni yerda qoldirmadim. Lekin do‘stlarim bilan xursandchilik qilishim uchun siz menga bitta uloqcha ham bermadingiz. 30 Ammo mol–mulkingizni fohishalar bilan yeb, yo‘q qilgan anavi o‘g‘lingiz qaytib kelganda, siz bo‘rdoqi buzoqni so‘ydirdingiz!

31 Otasi unga shunday javob beribdi:

— O‘g‘lim! Sen doimo men bilan birgasan. Mening bor narsam seniki. 32 Bugun esa bayram qilib, xursand bo‘lishimiz kerak. Axir, bu ukang biz uchun o‘lgan edi, endi tirildi, yo‘qolgan edi, endi topildi.”

16–BOB

Pishiq ish boshqaruvchi haqida masal

1 Iso shogirdlariga shunday dedi: “Bir boy odamning ish boshqaruvchisi bor ekan. Boyga, ish boshqaruvchingiz mol–mulkingizni sovurib yuribdi degan xabar yetib keldi. 2 Boy odam ish boshqaruvchisini chaqirib, unga shunday debdi:

— Sen haqingda ba’zi gaplarni eshitdim. Bu nimasi?! Menga boshqaruving to‘g‘risida hisobot ber, endi ishlarimni sen boshqarmaysan.

3 Shunda ish boshqaruvchi o‘ziga o‘zi debdi:

— Xo‘jayinim meni ishdan bo‘shatyapti. Endi nima qilaman? Yer chopishga kuchim yetmaydi, sadaqa so‘rashga uyalaman. 4 Eha, topdim! Bir ish qilaman, shunda bo‘shatilganimdan keyin odamlar uylarining eshiklarini men uchun ochib berishadi.

5 U vaqtni boy bermay, xo‘jayinning qarzdorlarini birma–bir chaqiribdi. Birinchisidan so‘rabdi:

— Xo‘jayinimdan qancha qarzing bor?

6 — Ikki yuz ko‘za zaytun moyi, — deb javob beribdi u.

— Tilxatingni ol, tezda o‘tirib yuz ko‘za* deb yoz! — debdi unga ish boshqaruvchi. 7 Keyin boshqasidan ham so‘rabdi:

— Sening qancha qarzing bor?

— Ming tog‘ora bug‘doy, — deb javob beribdi u. Unga ham:

— Tilxatingni ol, sakkiz yuz tog‘ora* deb yoz! — debdi ish boshqaruvchi.

8 Ha, ayyor ish boshqaruvchi ishini boplab bajardi! Chindan ham bu dunyoning odamlari zamondoshlari orasida nur ahliga* qaraganda o‘z ishiga ancha pishiqdirlar.

9 Men sizlarga aytaman: bu dunyoning boyligidan foydalanib do‘st orttiringlar, toki bu boylik tugagach, Xudo sizni abadiy maskaniga qabul qilsin. 10 Kichik ishda sadoqatli bo‘lgan odam katta ishda ham sadoqatli bo‘ladi. Kichik ishda sadoqatsiz bo‘lgan esa katta ishda ham sadoqatsiz bo‘ladi. 11 Agar sizga bu dunyoning boyligini ishonib topshirib bo‘lmasa, kim sizga haqiqiy boylikni ishonib topshiradi?! 12 Agar sizga

boshqalarning narsasini ishonib topshirib bo‘lmasa, o‘zingizga atalgan narsani sizga kim beradi?!

13 Hech qanday xizmatkor ikki xo‘jayinga xizmat qilolmaydi. U yo birini yomon
ko‘rib, boshqasini yaxshi ko‘radi, yoki biriga bag‘ishlanib, boshqasini mensimaydi. Sizlar
ham Xudoga, ham boylikka birdek xizmat qila olmaysizlar.”
14 Pulparast farziylar bularni eshitib, Isoni mazax qildilar. 15 Iso ularga dedi: “Sizlar
odamlar oldida o‘zingizni taqvodor qilib ko‘rsatasizlar, lekin Xudo yuragingizni biladi.
Odamzod ko‘kka ko‘targan narsalar Xudoning nazarida jirkanchdir.
16 Yahyo va undan oldin kelganlar Tavrot va Payg‘ambarlar bitiklarini* e’lon
qilganlar. Endi esa Xudoning Shohligi to‘g‘risidagi Xushxabar e’lon qilinmoqda va har bir
odam bu Shohlikka kirishga undalmoqda. 17 Biroq Tavrotdan bir nuqtaning
yo‘qolishidan ko‘ra, yeru osmonning yo‘qolishi osonroqdir.
18 Kim o‘z xotini bilan ajrashib boshqasiga uylansa, zino qilgan bo‘ladi. Shuningdek,
eri bilan ajrashgan xotinga uylangan kishi ham zino qilgan bo‘ladi.

Boy va Lazar haqida masal

19 Bir boy odam bor ekan. U qimmatbaho liboslar kiyib yurar, har kuni dabdabali
hayot kechirar ekan. 20 Boyning darvozasi oldida butun badaniga yara toshgan Lazar
ismli bir qashshoq gadoy yotar ekan. 21 U boy dasturxonidan to‘kilgan ushoqlar bilan
qorin to‘ydirishni orzu qilar ekan. Itlar kelib uning yaralarini yalab ketar ekan.
22 Bir kuni gadoy o‘lib qolibdi, farishtalar uni Ibrohimning yoniga olib ketibdilar.
Keyin boy ham o‘lib, dafn qilinibdi.
23 Jahannamda azob chekayotgan boy boshini ko‘tarib, uzoqda Ibrohimni va uning
yonidagi Lazarni ko‘ribdi. 24 So‘ng shunday deb faryod qilibdi:
— Ey Ibrohim ota! Menga rahm qilib Lazarni yuboring. U barmog‘ining uchini suvga
botirib, tilimga tomizsin. Bu alanga ichida azob chekyapman!
25 Ibrohim unga shunday deb javob beribdi:
— Unutma, o‘g‘lim, sen hayotligingda hamma yaxshi narsalaringni olib bo‘lding,
Lazar esa faqat yomonlik ko‘rdi. Endi u bu yerda tasalli topyapti, sen bo‘lsang, azob
chekyapsan. 26 Bundan tashqari, sen bilan bizning oramizda tubsiz jarlik bor. Bu yerdan
siz tomonga o‘tmoqchi bo‘lganlar o‘ta olmaydilar va u yerdan biz tomonga ham
o‘tmaydilar.
27 Shunda boy aytibdi:
— Unday bo‘lsa, ey ota, sizdan o‘tinib so‘rayman, Lazarni otamning uyiga yuboring.
28 Mening beshta ukam bor. Ular ham bu azobli joyga kelmasliklari uchun ularni
ogohlantirib qo‘ysin.
29 Ibrohim javob beribdi:
— Ularda Musoning va payg‘ambarlarning bitiklari* bor–ku, o‘shalarga quloq
solishsin.
30 Boy esa:
— Yo‘q, Ibrohim ota, ular quloq solmaydilar. Ammo o‘liklardan biri ularning oldiga
borsa, o‘shanda tavba qiladilar, — debdi. 31 Ibrohim shunday debdi:
— Agar Muso va boshqa payg‘ambarlarning so‘zlariga quloq solmagan bo‘lsalar,
o‘liklardan biri tirilib borsa ham ishonmaydilar.”

17–BOB

Gunoh haqida

1 Iso O‘z shogirdlariga yana dedi: “Gunohga yetaklaydigan vasvasalar doimo keladi.
Ammo vasvasaga sababchi bo‘lgan odamning holiga voy! 2 Bu kichiklarning birontasini*
gunohga boshlaganingizdan ko‘ra, bo‘yningizga tegirmon toshini osib, sizni dengizga
tashlashgani o‘zingiz uchun yaxshiroqdir. 3 Ehtiyot bo‘linglar! Agar birodaringiz gunoh
qilsa, unga tanbeh bering. Agar tavba qilsa, uni kechiring. 4 Agar o‘sha odam bir kunning
o‘zida sizga qarshi yetti marta gunoh qilsa–yu, yetti marta qaytib kelib, sizga: «Tavba
qildim», desa, uni kechirib yuboring.”

Imon va xizmat burchi haqida

5 Havoriylar Rabbimiz Isoga: “Imonimizga imon qo‘shing”, — dedilar.
6 Rabbimiz shunday javob berdi: “Agar zig‘irday* imoningiz bo‘lib, shu tut daraxtiga:
— Ildizing bilan qo‘porilib chiq va dengizga ko‘chib ildiz ot, — desangiz, daraxt sizga
bo‘ysunadi.
7 Xizmatkoringiz qo‘sh haydab yoki poda boqib daladan endigina qaytib kelganda,
qay biringiz unga:
— Kel darrov, dasturxonga o‘tir, — deb aytasiz? 8 Buning o‘rniga o‘sha
xizmatkoringizga:
— Kechki ovqatimni tayyorla, yeb–ichib bo‘lgunimcha, belingni bog‘lab, menga
xizmat qil, keyin o‘zing yeb–ichasan, — deb aytmaysizmi?!
9 Xizmatkor o‘z vazifasini bajargani uchun unga tashakkurlar bildirmaysiz–ku! 10 Shu
singari, sizlar ham o‘zingizga buyurilgan hamma ishni bajarganingizdan so‘ng:
— Biz bor–yo‘g‘i xizmatkormiz, vazifamizni bajardik, xolos, — deb aytinglar.”

Iso o‘n kishiga shifo beradi

11 Iso Samariya bilan Jalilani kesib o‘tib, Quddus tomon yo‘l oldi. 12 U bir qishloqqa
kirayotganda, teri kasalligiga* chalingan o‘n kishi Uni qarshilab oldi. Ular uzoqdan turib,
13 faryod qildilar:
— Ey Iso! Ustoz! Bizga rahm qiling!
14 Iso ularni ko‘rib:
— Boringlar, o‘zlaringni ruhoniylarga ko‘rsatinglar*, — dedi.
Ular yo‘lda ketayotganlarida, teri kasalligidan poklanib qoldilar.
15 Ulardan biri o‘zining shifo topganini ko‘rib, baland ovozda Xudoni ulug‘lab orqaga
qaytdi. 16 O‘zini Isoning oyoqlari ostiga tashlab, Unga minnatdorchilik bildirdi. O‘sha
odam Samariyalik* edi.
17 Iso shogirdlariga dedi:
— Teri kasalligidan poklangan o‘n kishi emasmidi?! Qolgan to‘qqiztasi qani?
18 Xudoni ulug‘lash uchun shu bir begona kishidan boshqa hech kim qaytib kelmadimi?
19 So‘ng Iso teri kasalligidan poklangan odamga dedi:
— O‘rningdan turgin–da, boraver. Senga ishonching shifo berdi.

Xudoning Shohligi

20 Ba’zi farziylar Isodan:
— Xudoning Shohligi qachon keladi? — deb so‘radilar. Iso ularga shunday javob
berdi:

— Xudoning Shohligi koʻzga koʻrinadigan shaklda kelmaydi. 21 Hech kim: “Qara, Xudoning Shohligi bu yerda”, yoki “Ana u yerda”, deb aytmaydi. Chunki Xudoning Shohligi sizlarning orangizdadir.

22 Keyin Iso shogirdlariga dedi: “Shunday vaqtlar keladiki, sizlar Inson Oʻgʻlining kunlaridan bittasini koʻrishni orzu qilasizlar, ammo oʻsha kunni koʻrolmaysizlar. 23 Odamlar sizlarga: «Ana, Masih anavi yerda» yoki «Mana, Masih bu yerda», deb aytadilar. Ammo sizlar ular aytgan yerga bormanglar, ularning ortidan ergashmanglar. 24 Chunki Inson Oʻgʻli kelganda, Uni hamma koʻradi. U osmonni bir chetidan boshqa chetigacha yoritib yuborgan chaqmoqday boʻladi. 25 Lekin undan avval Inson Oʻgʻli koʻp azob chekishi va bu nasl tomonidan rad qilinishi kerak.

26 Nuh davrida* qanday boʻlgan boʻlsa, Inson Oʻgʻli keladigan davrda ham xuddi shunday boʻladi. 27 Nuh kemaga kirgan kungacha insonlar yeb–ichdilar, uylandilar, turmushga chiqdilar. Toʻfon kelganda esa ularning hammasi nobud boʻldi. 28 Lut* zamonida ham xuddi shunday boʻlgan edi: odamlar yeb–ichardilar, savdo–sotiq qilardilar, ekin ekardilar, uy qurardilar. 29 Lekin Lut Sadoʻm shahridan chiqqan kuniyoq osmondan olov va oltingugurt yogʻib, hammani nobud qildi.

30 Inson Oʻgʻli zohir boʻlgan kunda ham xuddi shunday boʻladi. 31 U kunda tomning ustida boʻlgan kishi* uydagi narsalarni olish uchun pastga tushmasin. Dalada boʻlgan odam ham qaytib kelmasin. 32 Lutning xotiniga* nima boʻlganini yodingizda tutinglar. 33 Jonini saqlamoqchi boʻlgan uni yoʻqotadi. Jonini yoʻqotgan esa uni asrab qoladi. 34 Sizga shuni aytay: oʻsha kecha bir toʻshakda ikki kishi yotgan boʻlsa, biri olinadi, biri qoldiriladi. 35-36 Ikki ayol birga tegirmon tortayotgan boʻlsa, biri olinadi, biri qoldiriladi*.”

37 Shogirdlar Isodan soʻradi:

— Hazrat, bu voqealar qayerda yuz beradi?

— Kalxatlar toʻplangan joyda murda boʻlishini hamma biladi, — deb javob berdi Iso. — Bu voqealar qayerda yuz berishi ham sizlarga shu singari ayon boʻladi*.

18–BOB

Beva ayol va adolatsiz qozi haqida masal

1 Shogirdlar doimo va bezmasdan ibodat qilsin deb, Iso ularga shunday bir masal aytib berdi: 2 “Bir shaharda Xudodan ham qoʻrqmaydigan, odamdan ham uyalmaydigan bir qozi bor ekan. 3 Oʻsha shaharda bir beva ayol ham yashar ekan. U qozining oldiga tez–tez borib turib:

— Meni raqibimdan himoya qiling, — deb oʻtinarkan. 4 Qozi ancha vaqtgacha unga yordam berishdan bosh tortib yurar ekan. Oxiri u oʻzi–oʻziga shunday debdi:

— Men Xudodan qoʻrqmayman, odamlardan ham uyalmayman. 5 Ammo bu beva xotin meni holu jonimga qoʻymagani uchun uni himoya qila qolay. Boʻlmasa, u kelaverib meni bezor qiladi.”

6 Rabbimiz Iso gapida davom etdi: “Adolatsiz qozining gapini eshitdingizmi? 7 Shunday ekan, nahotki Xudo tunu kun iltijo qilayotgan Oʻz tanlaganlarini himoya qilmasa?! Yoʻq, Xudo ularni kuttirib qoʻymaydi! 8 Sizlarga aytaman: ularni zudlik bilan himoya qiladi! Ammo Inson Oʻgʻli kelganda, yer yuzida imoni bor odamlarni toparmikin?”

Farziy va soliqchi haqida masal

9 O‘zlarining solihligiga ishonib, boshqalarni mensimaydigan ba’zi odamlarga Iso
quyidagi masalni aytib berdi: 10 “Ikki odam ibodat qilgani Ma’badga kirishibdi. Ularning
biri farziy, ikkinchisi soliqchi* ekan. 11 Farziy o‘rnidan turib, shunday ibodat qilibdi:
— Xudoyim, O‘zingga shukur! Chunki men boshqalarga o‘xshab o‘g‘ri, jinoyatchi,
zinokor yoki manavi soliqchiday emasman. 12 Men haftada ikki marta ro‘za tutaman.
Topganimning o‘ndan birini ushr qilib beraman.
13 Soliqchi bo‘lsa uzoqda turib, hatto osmonga ham qarashga botinolmay, ko‘kragiga
urganicha:
— Yo Xudo, men gunohkorga rahm qil! — deb iltijo qilardi.
14 Sizga aytaman: farziy emas, mana shu odam oqlanib uyiga qaytdi. Zotan, o‘zini o‘zi
yuksaltirgan odam kamsitiladi, o‘zini past olgan odam esa yuksaltiriladi.”

Iso bolalarni duo qiladi

15 Iso bolalarimizga qo‘l tekkizsin deb, odamlar Uning oldiga hatto go‘daklarni ham
olib kelishardi. Shogirdlar buni ko‘rib, odamlarni koyidilar. 16 Iso esa bolalarni yoniga
chaqirib, dedi: “Bolalarga yo‘l beringlar, Mening oldimga kelishlariga to‘sqinlik
qilmanglar! Zero, Xudoning Shohligi shundaylarnikidir. 17 Sizlarga chinini aytayin: kim
Xudoning Shohligini bola kabi qabul qilmasa, unga hech qachon kirolmaydi.”

Boylik va abadiy hayot haqida

18 Obro‘li bir odam Isodan so‘radi:
— Valine’mat Ustoz! Abadiy hayotga ega bo‘lish uchun nima qilishim kerak?
19 Iso unga dedi:
— Nega Meni valine’mat deysan? Birgina Xudodan boshqa hech kim valine’mat
emas–ku! 20 Sen amrlarni bilasan: “Zino qilma. Qotillik qilma. O‘g‘rilik qilma. Yolg‘on
guvohlik berma. Ota–onangni hurmat qilgin.”*
21 — Bularning hammasiga yoshligimdan amal qilib kelaman, — dedi boyagi boshliq.
22 Buni eshitib, Iso dedi:
— Senga birgina narsa yetishmaydi: bor narsangni sot, pulini kambag‘allarga tarqat.
Shunda samoda xazinang bo‘ladi. Keyin kelib, Menga ergashgin.
23 Boshliq buni eshitib, qattiq xafa bo‘ldi, chunki u juda boy edi. 24 Iso uning xafa
bo‘lganini ko‘rib dedi:
— Mol–dunyosi bor odamlarning Xudo Shohligiga kirishi naqadar qiyin! 25 Boyning
Xudo Shohligiga kirishidan ko‘ra, tuyaning igna teshigidan o‘tishi osonroqdir.
26 Buni eshitganlar esa:
— Unday bo‘lsa, kim najot topa olar ekan? — deb so‘rashdi. 27 Iso shunday javob
berdi:
— Odamlar uchun imkonsiz bo‘lgan narsaning Xudo uchun imkoni bor.
28 Shunda Butrus dedi:
— Mana, biz uy–joyimizni tashlab, Sizning orqangizdan ergashib keldik.
29 Iso shogirdlariga dedi:
— Sizlarga chinini aytayin, Xudoning Shohligi uchun uy–joyini yoki xotinini yo aka–
ukalarini yoki ota–onasini yo bola–chaqasini qoldirgan odam* 30 bu dunyoning
o‘zidayoq bir necha barobar ortig‘i bilan oladi, narigi dunyoda esa abadiy hayotga ega
bo‘ladi.

Iso O‘z o‘limi to‘g‘risida uchinchi marta gapiradi

31 Keyin Iso o‘n ikki shogirdini chetga olib, ularga dedi: “Mana, biz Quddusga
ketyapmiz. Payg‘ambarlarning Inson O‘g‘li to‘g‘risida yozgan hamma bashoratlari bajo
bo‘ladi. 32 Uni g‘ayriyahudiylarga* tutib beradilar. Uni masxaralab haqorat qiladilar.
Unga tupuradilar. 33 G‘ayriyahudiylar Uni qamchilaydilar, keyin o‘ldiradilar. Ammo
uchinchi kuni U tiriladi.”
34 Shogirdlar esa bu so‘zlardan hech narsa tushunmadilar. Bu so‘zlarning ma’nosi
ularga qorong‘i edi, Isoning aytganlarini ular anglamadilar.

Iso ko‘r odamga shifo beradi

35 Iso Yerixo shahriga kirib kelayotganda, bir ko‘r odam yo‘l chekkasida sadaqa
so‘rab o‘tirar edi. 36 Oldidan katta bir olomon o‘tib ketayotganini eshitgan o‘sha ko‘r:
— Nima gap? — deb so‘radi.
37 — Nosiralik Iso o‘tib ketyapti, — deb javob berishdi unga. 38 Shunda ko‘r:
— Ey Dovud O‘g‘li* Iso, menga rahm qiling! — deb baqirdi. 39 Oldinda ketayotganlar
esa:
— Jim bo‘l! — deb unga do‘q qilishdi. U esa yanada qattiqroq baqirdi:
— Ey Dovud O‘g‘li! Menga rahm qiling!
40 Shunda Iso to‘xtab, ko‘rni yoniga olib kelishlarini buyurdi. Ko‘r kelgach, Iso undan
so‘radi:
41 — Mendan nima istaysan? Sen uchun nima qilay?
— Hazrat, ko‘zlarim ko‘rsin! — dedi u. 42 Iso unga:
— Ko‘zlaring ko‘rsin, ishonching senga shifo berdi, — dedi.
43 O‘sha zahoti u ko‘ra boshladi. So‘ng Xudoni ulug‘lagancha Isoga ergashdi. Buni
ko‘rgan butun xalq Xudoga hamdu sanolar aytdi.

19–BOB

Iso va Zakkay

1 Iso Yerixo shahriga kirib, shahar bo‘ylab o‘tayotgan edi. 2 Bu shaharda Zakkay
degan bir odam bor edi. U soliqchilar* boshlig‘i bo‘lib, boy edi. 3 Zakkay “Iso kim ekan?”
deb Uni ko‘rishga urinardi, ammo odam ko‘pligidan ko‘ra olmasdi, chunki uning bo‘yi
past edi. 4 U oldinga yugurib, Isoni ko‘rish uchun shikamora–anjir daraxti* ustiga chiqib
oldi. Iso o‘sha yerdan o‘tishi kerak edi.
5 Iso u yerga kelganda, yuqoriga qarab, Zakkayga dedi:
— Zakkay! Tezroq pastga tush, Men bugun sening uyingda mehmon bo‘lishim kerak.
6 Zakkay darrov pastga tushdi, Isoni quvonch bilan uyiga taklif qildi. 7 Buni
ko‘rganlarning hammasi: “Iso bir gunohkor odamning uyiga mehmonga bordi”, deb
norozilik bildirishdi. 8 Zakkay esa o‘rnidan turib, Rabbimiz Isoga dedi:
— Hazrat, men mol–mulkimning yarmini kambag‘allarga beraman. Biron kimsaning
narsasini nohaq olgan bo‘lsam, to‘rt barobar qilib qaytaraman.
9 Iso unga shunday javob berdi:
— Bugun bu xonadonga najot keldi, chunki bu odam ham Ibrohimning o‘g‘lidir*.
10 Inson O‘g‘li yo‘qolganni izlab topish va uni qutqarish uchun kelgan.

O‘nta xizmatkor haqida masal

11 Olomon Isoning bu so‘zlarini tinglar ekan, Iso gapini bir masal bilan davom ettirdi.
Chunki Iso Quddusga yaqinlashib qolgan edi, odamlar ham, Xudoning Shohligi hozir
zohir bo‘lishi kerak, deb o‘ylardilar.
12 Iso shunday dedi: “Bir zodagon odam uzoq mamlakatga ketmoqchi bo‘libdi. U
yerda shohlik taxtini egallab, qaytib kelmoqchi edi. 13 Ketishdan oldin u
xizmatkorlaridan o‘ntasini chaqiribdi–da, har biriga bir tilladan* berib, shunday debdi:
— Men qaytib kelgunimcha, bu pullarni ishga solinglar.
14 Holbuki, bu zodagonning hamyurtlari uni yomon ko‘rishar ekan. Uning orqasidan:
«Bu odam bizga shoh bo‘lmasin, istamaymiz», deb aytish uchun elchilar yuborishibdi.
15 Ammo zodagon shohlik taxtini egallab, qaytib kelibdi. So‘ng o‘zi pul bergan
xizmatkorlarini chaqirtirib, kim qancha foyda olganini bilmoqchi bo‘libdi.
16 Birinchisi kelib:
— Shoh hazratlari, sizning tillangiz o‘n tilla foyda olib keldi, — debdi. 17 Shoh unga:
— Barakalla! Sen yaxshi xizmatkorsan! Kichik ishda ishonchimni oqlaganing uchun
o‘nta shahar ustidan hokim bo‘lasan, — debdi.
18 Ikkinchisi kelib:
— Shoh hazratlari, sizning tillangiz besh tilla foyda keltirdi, — debdi. 19 Unga ham:
— Sen ham beshta shaharga hokimlik qilasan, — debdi.
20 So‘ng uchinchi xizmatkori kelib:
— Shoh hazratlari! — debdi, — mana sizning tillangiz, men uni ro‘molchaga tugib
saqladim. 21 Men sizdan qo‘rqdim, siz qattiqqo‘l odamsiz. Siz bermasdan olasiz,
ekmasdan o‘rasiz.
22 Shoh esa unga:
— Ey yomon xizmatkor! — deb do‘q urdi, — men seni o‘z so‘zlaring bo‘yicha hukm
qilaman! Mening qattiqqo‘lligimni hamda bermasdan olishimni, ekmasdan o‘rishimni
bilar ekansan, 23 nega pulimni muomalaga kiritmading? Men qaytib kelganimdan keyin,
pulimni foydasi bilan olgan bo‘lardim.
24 So‘ng yonida turganlarga debdi:
— Uning qo‘lidan tillani olib, o‘n tillasi borga beringlar.
25 — Ey olampanoh, uning o‘n tillasi bor–ku! — deyishibdi ular.
26 — Sizlarga shuni aytay: kimda bor bo‘lsa, unga yana beriladi. Kimda yo‘q bo‘lsa,
hatto bori ham tortib olinadi. 27 Endi mening shoh bo‘lishimni istamagan
dushmanlarimga kelsak, ularni shu yerga olib kelib, ko‘z oldimda qatl qilinglar.”

Iso Quddusga tantanali kiradi

28 Iso shu gaplarni aytgandan keyin, yo‘lida davom etib, Quddusga ketdi. 29 Zaytun
tog‘i* etagidagi Baytfagiya bilan Baytaniya qishloqlariga yaqinlashgach, U
shogirdlaridan ikkitasiga dedi:
30 — Anavi qishloqqa* boringlar. U yerga kirishingiz bilanoq, bog‘liq turgan va hech
qachon minilmagan xo‘tikni ko‘rasizlar. O‘sha xo‘tikni yechib, bu yerga olib kelinglar.
31 Agar kimdir sizlardan: “Xo‘tikni nega yechyapsizlar?” — deb so‘rab qolsa, “Bu xo‘tik
Rabbimiz Masihga kerak”, — deb aytinglar.
32 Shogirdlar borib, xuddi Isoning aytganini topdilar. 33 Xo‘tikni yechayotganlarida
uning egalari:

— Nega xo‘tikni yechyapsizlar? — deb so‘rashdi. 34 Shogirdlar:
— U Rabbimiz Masihga kerak, — dedilar.
35 Xo‘tikni Isoning oldiga keltirishdi–da, ustiga to‘nlarini tashlab, Isoni mindirishdi.
36 Iso xo‘tikni minib ketayotganda, odamlar to‘nlarini yo‘lga poyandoz qildilar. 37 Iso Zaytun tog‘idan tushadigan joyga yetib kelganda, ko‘pdan–ko‘p shogirdlar ko‘rgan barcha mo‘jizalarni eslab shodlandilar va baland ovozda Xudoga hamdu sanolar aytdilar:

38 “Egamiz nomidan kelayotgan Shoh baraka topsin!*
Osmonda tinchlik, falak toqida shon–sharaflar bo‘lsin!”

39 Shunda olomon orasidan ba’zi farziylar Isoga:
— Ustoz, shogirdlaringizni jim qiling! — deyishdi. 40 Iso esa ularga dedi:
— Sizlarga shuni aytay: agar bular jim bo‘lsa, toshlar chinqiradi!

Iso Quddus uchun yig‘laydi

41 Iso Quddusga kiray deganda, shaharni ko‘rib, yig‘lab yubordi: 42 “Tinchlik uchun nimalar zarurligini bugun sen bilsayding! Ammo bular senga qorong‘i. 43 Boshingga shunday kunlar keladi: dushmanlaring atrofingga tuproq uyadilar, seni o‘rab oladilar, har tomondan siquvga oladilar. 44 Bag‘ringdagi farzandlaringni qirib tashlaydilar. Seni shu qadar vayron qiladilarki*, shahringda hatto tosh ustida turgan tosh qolmaydi. Chunki Xudo seni qutqargani kelgandi, ammo sen bu imkoniyatni qo‘ldan boy berding*.”

Iso savdogarlarni Ma’baddan quvib chiqaradi

45 Iso Ma’badga kirib, ichkarida savdo–sotiq qilayotganlarni* quvib chiqara boshladi.
46 Ularga shunday dedi:
— “Mening uyim ibodat uyi bo‘ladi”*, deb Muqaddas bitiklarda yozilgan–ku! Sizlar esa Xudoning uyini qaroqchilar uyasiga* aylantirib yuboribsizlar!
47 Iso har kuni Ma’badda ta’lim berardi. Bosh ruhoniylar, Tavrot tafsirchilari va xalq yo‘lboshchilari esa Uni halok qilish payiga tushdilar. 48 Lekin buning chorasini topmadilar, chunki butun xalq Isoning so‘zlarini jonu dili bilan tinglar edi.

20–BOB

Isoning hokimiyati to‘g‘risida savol

1 Bir kuni Iso Ma’badda xalqqa ta’lim berib, Xushxabar aytayotgan edi. Shu payt bosh ruhoniylar, Tavrot tafsirchilari va yo‘lboshchilar kelib qoldilar. 2 Ular Isodan so‘radilar:
— Bizlarga ayting–chi, Siz bu ishlarni qanday hokimiyat bilan qilyapsiz? Bu hokimiyatni Sizga kim bergan?
3 Iso ularga shunday javob berdi:
— Men ham sizlarga bir savol berayin, Menga aytinglar: 4 Yahyo xalqni suvga cho‘mdirish huquqini Xudodan olganmidi yoki insondanmi?
5 Ular esa o‘zaro mulohaza yuritdilar:
— Agar: “Xudodan”, — desak, U: “Nega Yahyoga ishonmadingizlar?” — deydi. 6 Agar: “Insondan”, — desak, butun xalq bizni toshbo‘ron qiladi, chunki xalq Yahyoning payg‘ambarligiga qat’iy ishonadi.
7 Shunday qilib, ular:

— Qayerdanligini bilmaymiz, — deb javob berdilar. 8 Iso ularga dedi:
— Unday boʻlsa, Men ham bu ishlarni qaysi hokimiyat bilan qilayotganimni sizlarga aytmayman.

Yovuz bogʻbonlar haqida masal

9 Iso xalqqa quyidagi masalni aytdi: “Bir odam uzumzor barpo qilibdi. Uzumzorni bogʻbonlarga ijaraga berib, oʻzi uzoq vaqtga safarga ketibdi. 10 Yigʻim–terim mavsumida, uzumzor hosilidan tegishli ulushini olish uchun oʻsha odam xizmatkorini bogʻbonlar oldiga yuboribdi. Ammo bogʻbonlar xizmatkorni kaltaklab, qup–quruq qaytarib yuborishibdi. 11 Keyin uzumzor egasi yana boshqa bir xizmatkorini yuboribdi. Bogʻbonlar bu xizmatkorni ham urib, sharmanda qilib, qup–quruq qaytarib yuborishibdi. 12 Yana uchinchisini yuboribdi, uni ham yarador qilib, quvib chiqarishibdi.
13 Keyin uzumzor egasi oʻylabdi: «Endi nima qilsam ekan? Endi suyukli oʻgʻlimni yuboraman. Balki bogʻbonlar uni hurmat qilishar.»
14 Ammo bogʻbonlar uning oʻgʻlini koʻrishlari bilan oʻzaro muhokamaga tushib:
— Bu merosxoʻr–ku! Uni oʻldiraylik, shunda merosi bizga qoladi, — deyishibdi–da, 15 oʻgʻlini uzumzordan tashqariga chiqarib, oʻldirishibdi.
Xoʻsh, sizningcha, endi uzumzor egasi ularni nima qilar ekan? 16 U kelib bogʻbonlarni oʻldiradi, uzumzorini esa boshqalarga ijaraga beradi.”
Buni eshitganlar:
— Xudo koʻrsatmasin! — deb yuborishdi. 17 Iso esa ularga tikilib, shunday dedi:
— Unday boʻlsa, Muqaddas bitiklardagi:

> “Binokorlar rad etgan tosh
> Binoning tamal toshi* boʻldi”*,

degan soʻzlarning maʼnosi nima? 18 Kimki bu tamal toshiga* yiqilsa, parcha–parcha boʻladi. Tosh kimning ustiga tushsa, uni ezib yuboradi.
19 Iso aytgan bu masal tafsirchilar bilan bosh ruhoniylarga qarshi aytilgan edi. Ular buni anglab yetdilar va shu zahoti Isoni qoʻlga olmoqchi boʻldilar. Ammo xalqdan qoʻrqdilar.

Soliq toʻlash haqida

20 Tafsirchilar bilan bosh ruhoniylar Isoni kuzatib yurdilar. Uning ortidan oʻzlarini samimiy koʻrsatadigan odamlarni qoʻydilar. Ular esa Isoni tilidan ilintirib, hokimning qoʻliga va hukmiga bermoqchi edilar. 21 Shuning uchun ular Isoga dedilar:
— Ustoz, Siz aytayotgan soʻzlaringiz va oʻrgatayotgan taʼlimotingiz toʻgʻri ekanini bilamiz. Siz hech kimga yuz–xotir qilmay Xudoning yoʻlini toʻgʻri oʻrgatasiz. 22 Ayting–chi, Qaysarga* soliq toʻlashimiz* toʻgʻrimi yoki yoʻqmi?
23 Iso ularning makkorligini anglab, dedi*:
24 — Qani, Menga bir dinor* koʻrsatinglar! Bu tangadagi surat va yozuv kimniki?
— Qaysarniki, — deb javob berdi ular. 25 Iso:
— Unday boʻlsa, Qaysarning haqini Qaysarga, Xudoning haqini Xudoga beringlar, — dedi.
26 Ular xalqning koʻz oʻngida Isoni tilidan ilintira olmadilar. Isoning javobidan lol qolib, jim boʻldilar.

Tirilish haqida savol

27 Sadduqiylar* o‘liklarning tirilishini inkor etardilar. Ularning ba’zilari Isoning
oldiga kelib, xalq oldida Unga shunday savol berdilar:
28 — Ustoz! Muso bizga shunday yozib qoldirgan*: agar birovning akasi farzand
ko‘rmay o‘tib ketsa, ukasi akasining xotiniga uylanib, akasi uchun farzandni dunyoga
keltirsin. Tug‘ilgan bola marhum akasiniki hisoblanadi. 29 Xo‘sh, yetti aka–uka bo‘lgan
ekan. Birinchisi uylanibdi, ammo farzand ko‘rmay olamdan o‘tibdi. 30 So‘ng ikkinchisi
o‘sha xotinni olib, bola ko‘rmay o‘libdi. 31 Uchinchisi ham xuddi shu ko‘yga tushibdi.
Xullas, yettala aka–ukaning hammasi o‘sha xotinga uylanib, farzandsiz o‘tib ketibdi.
32 Oxirida xotin ham qazo qilibdi. 33 Ayting–chi, Xudo odamlarni tiriltirganda o‘sha ayol
qaysi birining xotini hisoblanadi? Yettovi ham unga uylangan edilar–ku!
34 Iso ularga shunday javob berdi:
— Bu dunyoda odamlar uylanadilar va erga tegadilar. 35 Ammo o‘likdan tirilishga va
kelajakdagi dunyoda yashashga sazovor bo‘lganlar u dunyoda uylanmaydilar, erga ham
tegmaydilar. 36 Ular bamisoli farishtalarday bo‘lganlari uchun hech qachon o‘lmaydilar.
Ular Xudoning farzandlaridir, chunki tirilgandirlar. 37 Hatto Musoning o‘zi ham
o‘liklarning tirilishini ta’kidlab, yonayotgan buta to‘g‘risidagi voqeada* Egamizni
“Ibrohim, Is’hoq va Yoqubning Xudosi” deb atagan. 38 Zotan, Xudo o‘liklarning emas,
tiriklarning Xudosidir. Xudo uchun hamma tirikdir.
39-40 Tafsirchilarning ba’zilari Isoga yana savol berishga jur’at etmaganlari uchun:
— Ustoz, yaxshi gapirdingiz, — dedilar.

Masih kimning o‘g‘li?

Iso tafsirchilarga dedi:
41 — Nega Masihni Dovudning O‘g‘li* deydilar? 42-43 Mana, Dovudning o‘zi Zabur
kitobida shunday degan:

> “Egamiz aytmoqda Rabbimga:
> Dushmanlaringni oyoqlaring ostiga poyandoz qilmagunimcha,
> Sen Mening o‘ng tomonimda* o‘tirgin.”*

44 Demak, Dovud Masihni Rabbim deb atagan bo‘lsa, qanday qilib Masih Dovudning
O‘g‘li bo‘ladi?!

Iso soxta dindorlik to‘g‘risida ogohlantiradi

45 Butun xalq Isoni tinglab turar ekan, U shogirdlariga dedi:
46 — Tavrot tafsirchilaridan ehtiyot bo‘linglar! Ular uzun kiyimlar kiyishni,
bozorlarda yurganlarida ularga salom berishlarini yaxshi ko‘radilar. Sinagogalarda
yaxshi joylarda o‘tirishni, ziyofatlarda to‘rda o‘tirishni yoqtiradilar. 47 Ammo beva
ayollarning uy–joylarini tortib oladilar, xo‘ja ko‘rsinga uzoq duo o‘qiydilar. Bunday
odamlar nihoyatda qattiq jazoga mubtalo bo‘ladilar.

21–BOB

Beva ayolning xayr–ehsoni

1 Iso Ma’badning ehson qutisiga nazar solar ekan, ehson tashlab turgan boy
odamlarni ko‘rdi. 2 Shuningdek, ikki chaqa* tashlagan bir kambag‘al beva ayolni ham

koʻrdi. 3 Shunda Iso dedi:

— Sizlarga chinini aytayin, bu kambagʻal beva hammadan koʻproq ehson berdi.
4 Chunki boylarning hammasi oʻzlarining ortiqcha pullaridan ehson qildilar. Ammo bu ayol kambagʻalligiga qaramasdan, oʻzining bor–yoʻgʻini tashladi.

Iso Ma'badning vayron boʻlishi toʻgʻrisida bashorat qiladi

5 Shogirdlardan ba'zilari Ma'badni tomosha qilib, uning goʻzal toshlar va Xudoga nazr qilingan in'omlar bilan bezatilgani toʻgʻrisida gaplashayotgan edilar. Iso esa dedi:

6 — Shunday kunlar keladiki, siz koʻrib turganlarning hammasi vayron boʻladi*. Bu yerda tosh ustida turgan bironta tosh qolmaydi.

7 Ular Isodan soʻradilar:

— Ustoz, bu hodisalar qachon yuz beradi? Tez orada yuz berishini nimadan bilsak boʻladi?

8 Iso dedi:

— Ehtiyot boʻlinglar, yoʻldan ozmanglar, chunki koʻp kishilar oʻzlarini Mening nomim bilan atab: "Men Oʻshaman", "Vaqt yaqin", — deb aytadi. Ularga ergashmanglar.
9 Sizlar urush va isyonlar toʻgʻrisida xabarlarni eshitganingizda, vahimaga tushmanglar, chunki bu hodisalar birinchi boʻlib sodir boʻlishi kerak. Ammo bu hali soʻnggi nihoya emas.

10 Keyin Iso ularga dedi: "Xalq xalqqa qarshi, shohlik shohlikka qarshi koʻtariladi.
11 Ayrim joylarda shiddatli zilzilalar, qahatchiliklar, oʻlatlar boʻladi. Osmonda vahimali hodisalar, buyuk alomatlar yuz beradi.

12 Lekin bularning hammasidan oldin sizlarni hibsga oladilar, quvgʻin qiladilar, sinagogalarga topshirib, qamoqlarga tashlaydilar. Mening nomim tufayli sizlarni shohlar va hokimlar oldiga olib boradilar. 13 Bular Xushxabarni aytishingiz uchun imkoniyat boʻladi. 14 Oʻzimizni qanday himoya qilamiz, deb oldindan qaygʻurmaslikka qaror qilinglar. 15 Men Oʻzim sizlarga soʻz, donolik ato qilamanki, raqiblaringizdan birontasi aytganlaringizni rad qila olmaydilar yoki e'tiroz bildira olmaydilar. 16 Sizlarni hatto ota–onangiz, aka–ukalaringiz, qarindosh–urugʻlaringiz, doʻstlaringiz tutib berishadi. Ular ba'zilaringizni oʻldirishadi. 17 Mening nomim tufayli hamma sizlardan nafratlanadi.
18 Biroq boshingizdan bir tola soch ham tushmaydi. 19 Qat'iyatli boʻlinglar, shunda hayotga erishasiz.

Quddusning vayron boʻlishi haqida bashorat

20 Quddusni dushman lashkarlari oʻrab olganini koʻrganingizda, bilingki, shahar yaqin orada vayron qilinadi. 21 Shunda Yahudiyada boʻlganlar togʻlarga qochsin, shaharning ichida boʻlganlar tashqariga chiqsin, dalalarda boʻlganlar shaharga kirmasin.
22 Chunki Xudoning qasos oladigan kunlari keldi. Oʻsha kunlarda hamma bashoratlar amalga oshadi. 23 U kunlarda homilador va emizikli ayollarning holiga voy! Chunki yer yuzini katta musibat chulgʻab oladi, bu xalqning boshiga Xudoning gʻazabi yogʻiladi.
24 Ba'zilari qilichdan oʻtkaziladi, boshqalari barcha yurtlarga asir qilib olib ketiladi. Gʻayriyahudiylarning davru davroni tugamaguncha, ular Quddusni oyoq osti qiladilar.

Inson Oʻgʻlining kelishi haqida

25 Quyosh, oy va yulduzlarda alomatlar paydo boʻladi. Dengizlar va toʻlqinlar shovqinidan xalqlar sarosimaga tushib, iztirob chekadi. 26 Odamlar dunyoga keladigan falokatlarni koʻrib, qoʻrquvdan hushidan ketadilar. Chunki oʻshanda samoviy kuchlar

larzaga keladi. 27 Shunda hamma odam Inson O‘g‘lini ko‘radi. Inson O‘g‘li qudratga va buyuk ulug‘vorlikka burkanib, bulutlarda keladi*.

28 Bu hodisalar yuz bera boshlaganda, turib, boshingizni baland ko‘taring. Chunki qutqariladigan vaqtingiz yaqinlashmoqda.”

Hushyor bo‘lish haqida

29 Iso shogirdlariga bir masalni aytib berdi: “Anjir daraxtiga va boshqa hamma daraxtlarga qaranglar. 30 Daraxtlar barg yozayotganini ko‘rganingizda, yoz yaqinlashib qolganini bilasiz. 31 Shu singari, mana bu voqealar sodir bo‘lganda, bilingki, Xudoning Shohligi yaqin. 32 Sizlarga chinini aytayin, bu nasl o‘tmasdanoq, bularning hammasi sodir bo‘ladi. 33 Yeru osmon yo‘q bo‘lib ketadi, ammo Mening so‘zlarim kuchda qoladi.

34 Hushyor bo‘linglar! Kayfu safoga, bu hayotning tashvishlariga berilib ketmanglar. Tag‘in o‘sha kun kelib qolganda sizlar to‘satdan to‘rga tushgan odamlarga o‘xshab qolmanglar! 35 Chunki u kun butun yer yuzida yashovchilarning boshiga tushadi. 36 Doim hushyor bo‘linglar. Yuz beradigan bu hamma musibatlardan qutula olishingiz va Inson O‘g‘li oldida munosib tura olishingiz uchun doimo ibodatda bo‘linglar.”

37 Har kuni Iso Ma’badda ta’lim berardi, kechalari esa shahardan chiqib, tunni Zaytun tog‘ida* o‘tkazar edi. 38 Xalq sahardan Isoni tinglagani Ma’badga kelardi.

22–BOB

Isoni o‘ldirish rejasi

1 Xamirturushsiz non bayramiga yaqin qolgan edi. Bu bayram Fisih* deb atalardi. 2 Bosh ruhoniylar va Tavrot tafsirchilari Isoni yashirincha o‘ldirish uchun fursat poylab yurgan edilar, chunki ular xalqdan qo‘rqardilar. 3 Shunda o‘n ikki havoriydan biri — Yahudo Ishqariyotning ichiga shayton kirib oldi. 4 Yahudo bosh ruhoniylarning va Ma’bad mirshabboshilarining* oldiga borib, Isoni qanday tutib berish to‘g‘risida ular bilan gaplashdi. 5 Ular juda xursand bo‘lib, Yahudoga pul beradigan bo‘ldilar. 6 Yahudo rozi bo‘ldi va Isoni xalqdan yashirincha ularning qo‘liga tutib berish uchun qulay fursatni kuta boshladi.

Qutlug‘ kecha va Isoga xiyonat

7 Xamirturushsiz non bayrami keldi. Shu kuni Fisih qo‘zisi qurbonlik qilinar edi. 8 Iso Butrus bilan Yuhannoni yuborayotib shunday dedi:

— Boringlar, biz uchun Fisih taomini tayyorlanglar.

9 Ular Isodan so‘radilar:

— Bayram taomini qayerda tayyorlashimizni xohlaysiz?

10 Iso ularga dedi:

— Quddusga kirishlaringiz bilanoq, ko‘zada suv ko‘tarib ketayotgan bir odamni uchratasizlar. O‘sha odamga ergashib, u kiradigan uyga kiringlar. 11 Xonadon egasiga shunday deb aytinglar: “Ustozimiz shogirdlari bilan Fisih taomini yemoqchilar. U sizdan: «Bizga tayyorlab qo‘yilgan mehmonxona qayerda?» deb so‘rab yubordilar.” 12 Uy egasi sizlarga jihozlangan katta boloxonani ko‘rsatadi. U yerda biz uchun hozirlik ko‘ringlar.

13 Shogirdlar ketdilar. Hamma narsa xuddi Iso aytganday ro‘y berdi. Ular Fisih taomini tayyorladilar.

14 Ziyofat vaqti bo‘ldi. Iso bilan havoriylari dasturxon atrofiga yonboshlashdi. 15 Iso

ularga dedi:

— Men azob chekmasimdan avval bu Fisih taomini sizlar bilan birga yeyishni juda ham orzu qilgandim. 16 Sizlarga aytay: biz Xudoning Shohligida haqiqiy Fisih taomini yemagunimizcha, Men bu taomdan boshqa yemayman.

17 Keyin Iso sharob quyilgan kosani olib, shukrona duosini aytib dedi:

— Buni olinglar, o‘zaro bo‘lishinglar. 18 Sizlarga aytay: Xudoning Shohligi kelmaguncha, Men uzum ne’matidan boshqa ichmayman.

19 So‘ngra nonni oldi, shukrona duosini aytib sindirdi va shogirdlariga berib dedi:

— Bu non Mening tanamni bildiradi. Tanam sizlar uchun fido bo‘ladi. Birgalikda non sindirib yeganingizda Meni xotirlanglar.

20 Ovqatlanib bo‘lganlaridan keyin, Iso yana sharob quyilgan kosani olib, shunday dedi:

— Bu kosa Xudoning yangi ahdini* bildiradi. Bu ahd sizlar uchun to‘kiladigan qonim evaziga kuchga kiradi. 21 Ana, qarang! Menga xiyonat qiladigan odam Men bilan bir dasturxonda o‘tiribdi. 22 Ha, Xudo reja qilganday, Inson O‘g‘li jon beradi. Ammo Inson O‘g‘liga xiyonat qilgan odamning holiga voy!

23 Shunda ular bir–birlaridan:

— Oramizda bunday ishga qo‘l uradigan kim ekan? — deb so‘ray boshladilar.

Eng katta kim?

24 Shogirdlar orasida: “Qaysi birimiz eng katta hisoblanishimiz kerak?” degan bahs bo‘ldi.

25 Iso ularga dedi: “Butparastlarning hukmdorlari xalqlariga o‘z hukmini o‘tkazadilar. El boshliqlari o‘zlarini oliyhimmat deb ataydilar. 26 Sizlar esa bunday bo‘lmanglar. Aksincha, orangizda kim katta bo‘lsa, o‘zini eng kichikday tutsin. Kim boshliq bo‘lsa, xizmatkorday bo‘lsin. 27 Xo‘sh, kim katta? Dasturxon atrofida o‘tirganmi yoki unga xizmat qilayotganmi? Dasturxon atrofida o‘tirgan emasmi?! Men esa orangizda xizmatkordayman.

28 Og‘ir kunlarimda yonimda bo‘ldingizlar. 29 Shuning uchun osmondagi Otam Menga in’om qilgan Shohlikni Men sizlarga in’om qilyapman. 30 Sizlar Mening Shohligimda dasturxonim atrofida o‘tirib yeb–ichasizlar, taxtlarda o‘tirib, Isroilning o‘n ikki qabilasiga hukmronlik qilasizlar.”

Iso Butrusning tonishi to‘g‘risida bashorat qiladi

31 Iso dedi:

— Shimo‘n*, Shimo‘n! Mana, bug‘doyni g‘alvirdan o‘tkazishganday, shayton sizlarni sinovdan o‘tkazishga izn talab qildi*. 32 Biroq imondan toymasin deb, Men sen uchun ibodat qildim. Sen tavba qilib, Menga qaytganingdan keyin, birodarlaringni imonda mustahkamla.

33 Shimo‘n Isoga javoban dedi:

— Hazrat! Men Siz bilan zindonga ham, o‘limga ham borishga tayyorman!

34 Iso esa dedi:

— Eh Butrus! Senga shuni aytay: bugun xo‘roz qichqirmasdan oldin sen uch marta Meni tanimasligingni aytasan.

Hamyon, to‘rva, qilich

35 Iso shogirdlariga dedi:

— Men sizlarni hamyonsiz, to‘rvasiz, choriqsiz yuborganimda*, biron narsada kamchiligingiz bormidi?

— Hech narsada! — javob berdi ular. 36 Iso ularga shunday dedi:

— Endi esa kimning hamyoni yoki to‘rvasi bo‘lsa, olsin. Kimda qilich yo‘q bo‘lsa, choponini sotib, qilich* xarid qilsin. 37 Sizlarga aytay: “U gunohkorlar qatorida sanaldi”*, — deb Men haqimda aytilgan bashorat bajo bo‘lishi kerak. Ha, Men haqimda yozilgan bu so‘z bajo bo‘lyapti.

38 Shogirdlar:

— Hazrat, qarang, mana bu yerda ikkita qilich bor ekan! — dedilar.

— Bo‘ldi, bas qilinglar! — dedi Iso.

Iso Zaytun tog‘ida ibodat qiladi

39 Iso shahardan chiqib, odatdagiday Zaytun tog‘iga* yo‘l oldi. Shogirdlari ham Uning orqasidan ketdilar. 40 Iso o‘sha joyga yetib kelgandan keyin, shogirdlariga:

— Vasvasaga tushib qolmaylik, deb ibodat qilinglar*, — dedi. 41 O‘zi ulardan bir tosh otar masofacha nari bordi–da, tiz cho‘kib ibodat qildi:

42 — Ey Ota! Qaniydi, bu azob kosasini* Mendan uzoqlashtirsang! Ammo Mening xohishim emas, Sening xohishing bajo bo‘lsin.

43 Shu orada osmondan bir farishta Isoga zohir bo‘lib, Unga kuch ato qildi. 44 Iso og‘ir iztirob ichida jon–jahdi bilan ibodat qildi. Undan oqqan ter esa yerga tomayotgan qon tomchilariga o‘xshar edi*.

45 Iso ibodatni tugatib, shogirdlari yoniga keldi. Ularning uxlab yotganini ko‘rdi. Shogirdlar qayg‘udan holdan toygan edilar. 46 Iso ularga:

— Nega uxlab yotibsizlar? Qani, turinglar, vasvasaga tushib qolmaylik, deb ibodat qilinglar, — dedi.

Iso hibsga olinadi

47 Iso hali gapini tugatmagan ham ediki, olomon kelib qoldi. Olomonni o‘n ikki shogirddan biri — Yahudo boshlab kelgandi. Yahudo Isoni o‘pmoqchi bo‘lib, Unga yaqinlashdi*. 48 Iso esa unga dedi:

— Yahudo, sen Inson O‘g‘liga birgina o‘pich bilan xiyonat qilyapsanmi?!

49 Isoning yonidagilar voqea qayoqqa yo‘nalayotganini payqab:

— Hazrat, qilichni ishga solaylikmi? — deyishdi. 50 Ulardan biri esa oliy ruhoniyning xizmatkoriga bir urib, uning o‘ng qulog‘ini kesib tashladi. 51 Shunda Iso:

— Qo‘yinglar, bas! — dedi–da, xizmatkorning qulog‘iga qo‘l tekkizib unga shifo berdi. 52 So‘ng Uni qo‘lga olishga kelgan bosh ruhoniylar, Ma’bad mirshabboshilari* va yo‘lboshchilarga dedi:

— Men qaroqchimidim, Meni olib ketgani qilichu tayoqlar bilan kelibsizlar?! 53 Sizlar bilan har kuni Ma’badda birga edim, Menga qo‘l tekkizmadingizlar. Ammo endi zamon sizniki, zulmat hukmronligi keldi!

Butrus Isodan tonadi

54 Isoni ushlab, oliy ruhoniyning* uyiga olib ketdilar. Butrus esa masofa saqlab ularga ergashib bordi. 55 Oliy ruhoniyning hovlisi o‘rtasida gulxan yoqishdi. Butrus gulxan atrofida o‘tirgan odamlarning yoniga borib o‘tirdi. 56 Bir cho‘ri qiz gulxan yonida o‘tirgan Butrusni ko‘rdi. U Butrusga tikilib qaradi–da:

— Bu odam ham U bilan birga edi! — dedi.

57 Lekin Butrus inkor etib:
— Ey singlim, men Uni tanimayman! — dedi.
58 Bir ozdan keyin boshqa bir odam Butrusni koʻrib:
— Sen ham ulardan birisan–ku! — dedi. Lekin Butrus unga ham:
— Yoʻgʻ–e, men ulardan emasman! — dedi.
59 Oradan bir soatlar oʻtgandan keyin yana kimdir:
— Haqiqatan ham, manavi odam U bilan birga boʻlgan. Axir, u ham Jalilalik–ku!* — deb turib oldi.
60 — Menga qara, nima toʻgʻrisida gapiryapsan, tushunmayapman, — deb eʼtiroz bildirdi Butrus.
U gapini tugatmasdanoq, xoʻroz qichqirdi. 61 Rabbimiz Iso oʻgirilib, Butrusga qaradi. Shunda Butrus Rabbimizning: “Bugun xoʻroz qichqirmasdan oldin, sen Mendan uch marta tonasan” degan gapini esladi. 62 Butrus hovlidan chiqib, achchiq–achchiq yigʻladi.
63 Isoni qoʻriqlagan odamlar Uni haqoratlab kaltakladilar. 64 Ular Isoning koʻzlarini bogʻlab qoʻyib:
— Paygʻambar, qani, top–chi, Seni kim urdi ekan? — derdilar. 65 Isoga yana koʻp haqoratli soʻzlar aytdilar.

Iso Oliy kengash oldida

66 Tong otganda Oliy kengash* aʼzolari — bosh ruhoniylar va tafsirchilar yigʻildilar. Isoni ularning oldiga olib kelishdi.
67 — Bizga ayt–chi, Sen Masihmisan? — deb soʻradilar. Iso shunday javob berdi:
— Agar sizlarga aytsam, Menga ishonmaysizlar. 68 Agar sizlarga savol bersam, javob bermaysizlar*. 69 Biroq bundan buyon Inson Oʻgʻli Qodir Xudoning oʻng tomonida oʻtiradi*.
70 Shunda hamma birdaniga:
— Bundan chiqdi, Sen Xudoning Oʻgʻli* ekansan–da? — deb soʻradilar.
— Oʻzlaringiz Mening kimligimni aytdingizlar, — dedi ularga Iso. 71 Shunda ular:
— Boshqa guvohga ehtiyoj qolmadi! Oʻz ogʻzidan oʻzimiz eshitdik, axir! — deyishdi.

23–BOB

Iso Pilat huzurida

1 Butun Kengash aʼzolari turib, Isoni hokim Pilatning* oldiga keltirdilar. 2 Ular Isoni ayblay boshladilar:
— Biz bu Odamni xalqimizni yoʻldan ozdirayotganda ushlab oldik. U, Qaysarga* soliq toʻlamanglar, Men Masihman, yaʼni shohman, deb aytib yuribdi.
3 Pilat Isodan:
— Sen yahudiylarning shohimisan? — deb soʻradi.
— Siz shunaqa deysiz, — deb javob berdi Iso.
4 Shunda Pilat bosh ruhoniylarga va olomonga:
— Men bu Odamni ayblashga hech qanday sabab koʻrmayapman, — dedi. 5 Ammo ular qattiq turib oldilar:
— U Oʻz taʼlimoti bilan butun Yahudiyadagi* odamlarni qoʻzgʻolonga daʼvat qilyapti. U bu qilmishini Jalilada boshlagandi, endi shu yerga ham yetib kelibdi.
6 Pilat bu gapni eshitib:

— Bu Odam Jalilalikmi? — deb so‘radi. 7 Iso Hirodning* qo‘li ostidagi hududdan
ekanini Pilat bilgach, Uni Hirod huzuriga jo‘natdi. Hirod o‘sha paytda Quddusda edi.

Iso Hirod oldida

8 Hirod Isoni ko‘rib, juda xursand bo‘lib ketdi. U anchadan buyon Isoni ko‘rmoqchi
bo‘lib yurgan edi. Chunki Hirod Iso haqida eshitgan, Uning biron mo‘jizasini ko‘rsam
degan niyatda edi. 9 Hirod Isoga ko‘p savollar berdi, ammo Iso hech biriga javob
qaytarmadi. 10 Shu yerda turgan bosh ruhoniylar bilan Tavrot tafsirchilari esa Uni
shiddat bilan qoraladilar. 11 Shundan keyin Hirodning o‘zi ham askarlari bilan birga
Isoni kamsitib masxaraladi. Unga shohona chopon kiydirib, Pilatning oldiga qaytarib
yubordi. 12 Bir–biriga dushman bo‘lgan Hirod bilan Pilat o‘sha kuni do‘stlashdilar.

Iso o‘limga hukm qilinadi

13 Pilat bosh ruhoniylar, yo‘lboshchilar va xalqni chaqirib, 14 ularga dedi:
— Sizlar bu Odamni xalqni yo‘ldan ozdirishda ayblab, oldimga olib keldingizlar. Men
Uni sizlarning oldingizda tekshirib ko‘rdim. Ammo sizlar Unga qo‘ygan ayblardan
birontasini men topmadim. 15 Hirod ham hech nima topolmagani uchun Uni bizning
oldimizga qaytarib yubordi. Xullas, bu Odam o‘limga loyiq biron ish qilmagan. 16-
17 Shuning uchun men Uni kaltaklab, ozod qilib yuboraman*.
18 Xaloyiq esa bir og‘izdan:
— Unga o‘lim! Bizga Barabbasni ozod qiling! — deb baqira ketishdi.
19 Barabbas shaharda yuz bergan isyonda* ishtirok etib, qotillik qilgan, shuning
uchun zindonga tashlangan edi. 20 Pilat Isoni ozod qilmoqchi bo‘lib, olomonga yana
murojaat etdi. 21 Ammo olomon:
— Xochga mixlansin! Xochga mixlansin! — deb shovqin ko‘tardi. 22 Pilat uchinchi
marta ularga aytdi:
— Nimaga? U nima yomonlik qildi, axir?! Men Unda o‘limga loyiq biror ayb topganim
yo‘q. Shunday ekan, men Uni kaltaklab, ozod qilib yuboraman!
23 Biroq olomon ovozi boricha:
— Iso xochga mixlansin! — deb baqirib, talab qilaverdi. Nihoyat ularning baqir–
chaqirlari ustun keldi. 24 Pilat ularning talabini bajarishga qaror qildi. 25 Olomonning
istagiga ko‘ra, isyonda ishtirok etib, qotillik qilgani uchun zindonga tashlangan odamni
Pilat ozod qildi, Isoni esa olomonning ixtiyoriga topshirdi.

Iso xochga mixlanadi

26 Rim askarlari Isoni olib ketdilar. Ular ketayotganlarida, Shimo‘n degan bir odamni
uchratib qoldilar. Shimo‘n Kirineyalik* bo‘lib, daladan shaharga qaytib kelayotgan ekan.
Askarlar uning yelkasiga xochni* ortib, Isoning ketidan borishga majbur qildilar. 27 Bir
talay olomon Isoning ortidan ergashib kelayotgan edi. Ularning orasida ayollar ham bor
edi. Ayollar ko‘ksiga urib, Iso uchun faryod qilardilar.
28 Iso ayollarga qarab dedi:
— Men uchun yig‘lamanglar, ey Quddus qizlari! O‘zlaringiz uchun, farzandlaringiz
uchun yig‘langlar. 29 Shunday kunlar keladiki: “Tug‘magan, bola emizmagan, bepusht
ayollar baxtlidir”, deb aytishadi. 30 O‘shanda odamlar tog‘larga: “Ustimizga qulanglar!”
deya baqirishadi. Qirlarga: “Bizni bosib qolinglar!” deb yolvorishadi*. 31 Ko‘karib turgan
daraxtga shunday qilsalar, qurigan daraxtni nima qilar ekanlar?!
32 Iso bilan birga ikki jinoyatchini ham qatl qilishga olib ketayotgan edilar. 33 Bosh

suyagi degan joyga yetib kelganlaridan so‘ng, askarlar Isoni xochga mixladilar. Iso bilan birga ikkita jinoyatchini ham mixladilar, ularning biri Isoning o‘ng tomonida, biri chap tomonida edi. 34 Iso:

— Ey Ota! Ularni kechirgin, ular nima qilayotganini bilmaydilar, — dedi*.

Askarlar qur’a tashlab, Isoning kiyimlarini bo‘lishib oldilar*. 35 Olomon qarab turardi. Yahudiy yo‘lboshchilari esa Isoning ustidan kulib, shunday derdilar:

— U boshqalarni qutqarardi. Agar U Xudo tanlagan Masih bo‘lsa, endi O‘zini qutqarib ko‘rsin–chi!

36 Askarlar ham Isoni masxaraladilar. Ular Isoga arzon sharob* ichirgani yaqinlashib, 37 shunday dedilar:

— Agar Sen yahudiylarning Shohi bo‘lsang, O‘zingni O‘zing qutqar–chi!

38 Isoning bosh tomonida: “Bu yahudiylarning Shohidir” degan yozuv bor edi*.

39 Xochga mixlangan jinoyatchilardan biri Isoni haqoratlab dedi:

— Masih ekansan, O‘zingni ham, bizni ham qutqarmaysanmi?!

40 Ikkinchi jinoyatchi esa bu sherigiga ta’na qildi:

— Xudodan qo‘rqmaysanmi?! O‘zing ham shu Odam kabi jazoga mahkum bo‘lgansan–ku! 41 Biz qilmishimizga yarasha adolatli jazo oldik. U esa hech qanday yomonlik qilgani yo‘q.

42 Keyin dedi:

— Ey Iso*, taxtingizga o‘tirib, Shoh bo‘lganingizda meni eslang!

43 Iso unga dedi:

— Senga chinini aytayin, bugunoq sen Men bilan birga jannatda bo‘lasan.

Isoning o‘limi

44-45 Tush payti edi. Kun qoraydi, soat uchga* qadar hamma yoq zulmatga cho‘mdi. Ma’baddagi parda* o‘rtasidan yirtildi. 46 Iso baland ovoz bilan faryod qildi:

— Ota! Ruhimni Sening qo‘llaringga topshiryapman*.

Shunday dedi–da, jon berdi. 47 Voqeani ko‘rib turgan Rim yuzboshisi Xudoni ulug‘lab:

— Haqiqatan ham, bu Odam solih ekan, — dedi.

48 Tomoshaga to‘plangan olomon sodir bo‘lgan voqealarni ko‘rib, qayg‘udan ko‘ksiga ura–ura uylariga qaytib ketdilar. 49 Isoni bilganlar esa, shu jumladan, Jaliladan Unga ergashib kelgan ayollar yuz bergan voqealarni uzoqdan kuzatib turardilar.

Iso dafn etiladi

50 Oliy kengash a’zolari orasida Yusuf ismli yaxshi va solih bir kishi bor edi. 51 U Yahudiyadagi Arimateya shahridan* bo‘lib, Xudoning Shohligini intizorlik bilan kutardi. Yusuf Kengash a’zolarining bu qarorini va qilgan ishini ma’qullamagan edi. 52 U Pilatning oldiga borib, Isoning jasadini so‘radi. 53 Yusuf jasadni xochdan tushirib olib, zig‘ir matosi bilan kafanladi. Keyin jasadni qoyaga o‘yilgan qabrga qo‘ydi. Bu qabrga hali hech kim qo‘yilmagan edi. 54 Bu kun Shabbat arafasi bo‘lib, Shabbat kuni boshlanishiga oz qolgandi*. 55 Jaliladan Iso bilan birga kelgan ayollar Yusufning orqasidan ergashib bordilar. Ular qabrni va Isoning jasadi qanday dafn qilinganini ko‘rdilar. 56 Ular uylariga qaytib borib, jasadga surtish uchun xushbo‘y moylar va atirlar tayyorladilar*. Shabbat kuni esa, qonunda buyurilganday, dam oldilar.

24–BOB

Iso Masih tiriladi

1 Yakshanba kuni erta tongda ayollar tayyorlab qo‘ygan xushbo‘y moylarini* olib,
qabrga keldilar*. 2 Qabr og‘zidagi tosh ag‘darilib yotganini ko‘rdilar. 3 Ichkariga kirdilar,
ammo Rabbimiz Isoning jasadini topmadilar. 4 Ular gangib qoldilar. Shunda to‘satdan
ayollarning qarshisida ikki odam paydo bo‘ldi. Ularning kiyimlari yarqirab turardi.
5 Ayollar vahimadan boshlarini yerga egib turishdi. Odamlar esa ayollarga shunday
deyishdi:

— Nega siz tirikni o‘liklar orasidan qidiryapsizlar? 6 U bu yerda yo‘q, U tirildi! Hali
Jalilada bo‘lgan paytida sizlarga nima deganini eslanglar. 7 U sizga: “Inson O‘g‘li
gunohkor odamlar qo‘liga tutib beriladi, xochga mixlanadi, uchinchi kuni esa tiriladi”,
degan edi–ku*.

8 Shunda ayollar Isoning bu so‘zlarini esladilar. 9 Ular qabr yonidan qaytib, bu
voqeani o‘n bir shogirdga va qolgan hammaga aytib berdilar. 10 Havoriylarga bu xabarni
Magdalalik* Maryam, Yo‘anna va Yoqubning onasi Maryam yetkazdilar. Ular bilan birga
boshqa ayollar ham bor edi. 11 Ammo havoriylar, bu ayollar safsata tarqatyaptilar, deb
o‘yladilar, ayollarning gaplariga ishonmadilar. 12 Butrus esa o‘rnidan turib, qabr tomon
yugurdi. Ichkariga engashib qarab, u yerda faqatgina kafanni ko‘rdi. Yuz bergan
voqeadan hayron qolib, uyiga qaytib ketdi.

Emmaus yo‘lida

13 O‘sha kuni Isoning shogirdlaridan ikkitasi Emmaus degan qishloqqa ketishayotgan
edi. Bu qishloq Quddusdan taxminan o‘n chaqirim* uzoqlikda joylashgan edi. 14 Ular yuz
bergan voqealar to‘g‘risida suhbatlashib ketayotgan edilar. 15 Ular gaplashib, bo‘lib
o‘tganlarni muhokama qilib ketayotganlarida, Isoning O‘zi ularga yaqinlashib, hamroh
bo‘ldi. 16 Shogirdlar Isoni ko‘rdilar, ammo Uni taniy olmadilar.

17 Iso ulardan:

— Nimani muhokama qilib ketyapsizlar? — deb so‘radi. Ular to‘xtab qoldilar, yuzlari
g‘amgin edi*. 18 Shogirdlaridan Kleopas degani Unga javob berdi:

— Shu kunlarda Quddusda ko‘p voqealar yuz berdi. Bulardan bexabar qolgan
musofir yolg‘iz Siz bo‘lsangiz kerak.

19 — Qanday voqealar? — deb so‘radi Iso ulardan.

— Nosiralik Iso to‘g‘risidagi voqealar–da, — deb javob berdi ular. — Iso payg‘ambar
edi, Xudo oldida va butun xalq oldida so‘zlari va ishlari bilan qudratini ko‘rsatdi.
20 Ammo bosh ruhoniylarimiz bilan yo‘lboshchilarimiz Uni o‘limga mahkum qilib,
xochga mixlash uchun tutib berdilar. 21 Biz esa, U Isroilni xalos etadi, deb umid qilgan
edik. Bu hodisalar sodir bo‘lganiga bugun uch kun bo‘ldi. 22 Buning ustiga–ustak,
oramizdagi ayrim ayollar bizni hayratda qoldirishdi. Ular bugun saharda qabrga borgan
ekanlar, 23 Uning jasadini topa olmabdilar. Ayollar qaytib kelib: “Bizga farishtalar zohir
bo‘ldi, ular bizga, Iso tirik, deb aytishdi” degan xabarni olib kelishdi. 24 Shunda
oramizdan ba’zilar qabrga borib, ayollarning gapi to‘g‘ri ekanini ko‘rdilar. Iso qabrda
yo‘q edi.

25 Iso ularga dedi:

— Bunchalik befahm bo‘lmasangizlar?! Payg‘ambarlarning gaplariga ishonish nega
sizlar uchun shunchalik qiyin?! 26 Axir, Masih ulug‘lanishidan oldin bu azoblarni

boshdan kechirishi kerak edi–ku!
27 Keyin Musodan tortib, barcha Payg‘ambarlar bitiklarida* O‘zi haqida yozilgan
so‘zlarning hammasini Iso ularga tushuntirdi. 28 Nihoyat, ular borayotgan qishloqqa
yaqinlashdilar. Iso O‘zini yo‘lda davom etadigan qilib ko‘rsatdi. 29 Lekin ular Isoga:
— Kech bo‘lib qoldi, hademay qorong‘i tushadi. Biz bilan birga qoling, — deb
qistadilar.
Iso ular bilan birga qolgani ichkariga kirdi. 30 Ular bilan birga dasturxonga
o‘tirganda, nonni olib shukrona duosini aytdi va nonni sindirib ularga berdi. 31 Shunda
ularning ko‘zlari ochilib, Isoni tanib qolishdi. Biroq Iso ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi.
32 Shogirdlar bir–biriga dedilar:
— U yo‘lda biz bilan gaplashib, Muqaddas bitiklarni tushuntirayotganda,
yuraklarimiz jizillamaganmidi, axir?!
33 Shu zahoti o‘rinlaridan turib, Quddusga qaytib bordilar. O‘n bir havoriyni va ular
bilan to‘planib turganlarni topdilar. 34 Havoriylar ularga:
— Rabbimiz Iso haqiqatan ham tirilibdi! U Butrusga* ko‘rinibdi! — deb aytdilar.
35 Shunda Emmausdan qaytib kelgan ikki shogird ham yo‘ldagi voqealarni, Iso nonni
sindirayotganda Uni qanday tanib qolganlarini aytib berdilar.

Iso shogirdlariga zohir bo‘ladi

36 Ular bu to‘g‘rida hali gapirayotganlarida, Isoning O‘zi o‘rtalarida zohir bo‘ldi.
— Sizlarga tinchlik bo‘lsin! — dedi.
37 Shogirdlar, arvoh ko‘ryapmiz, deb o‘ylab o‘takasi yorildi. 38 Lekin Iso ularga dedi:
— Nega qo‘rqib ketdingizlar? Nechun ko‘nglingizda buncha gumonlar tug‘ilyapti?
39 Qo‘llarimga va oyoqlarimga qaranglar, bu Men O‘zimman. Meni ushlab ko‘ringlar.
Arvohning etu suyagi bo‘lmaydi–ku, axir! Mening esa, ko‘rib turganingizday, etu
suyagim bor.
40 Iso shu gaplarni aytib, ularga qo‘l–oyoqlarini ko‘rsatdi. 41 Shogirdlari sevinchdan
taajjublanib hali ham ishonmay turganlarida, Iso ulardan so‘radi:
— Bu yerda yeydigan biron narsangiz bormi?
42 Shogirdlari Unga bir bo‘lak qovurilgan baliq* berishdi. 43 Iso buni olib, ularning
ko‘zlari oldida yedi. 44 Keyin Iso shogirdlariga dedi:
— Sizlar bilan birga bo‘lgan paytlarimda, Musoning Tavrot kitobida, Payg‘ambarlar
bitiklarida va Zaburda* Men to‘g‘rimda yozilganlar bajo bo‘lishi kerak, deb sizlarga
aytgan edim.
45 So‘ngra Iso, Muqaddas bitiklarni tushunib yetsinlar deb, ularning ongini ochdi 46 va
ularga dedi:
— Masih azob chekishi va uchinchi kuni o‘likdan tirilishi kerak, deb yozilgan. 47 Yana,
tavba qilish va gunohlarning kechirilishi haqidagi xabar Uning nomi bilan jamiki
xalqlarga va’z qilinishi kerak, deb ham yozilgan. Shunday ekan, Quddusdan boshlab,
48 hamma odamlarga ko‘rgan–bilganlaringizni aytinglar. 49 Men sizlarga osmondagi
Otam va’da qilgan Muqaddas Ruhni yuboraman*. Shuning uchun yuqoridan qudrat kelib
sizlarni qamrab olmaguncha, shu shaharda qolinglar.

Iso osmonga ko‘tariladi

50 Shundan keyin Iso shogirdlarini shahardan tashqariga — Baytaniya* yaqiniga olib
chiqdi. Iso qo‘llarini ko‘tarib, ularni duo qildi. 51 Duo qilayotib, ulardan uzoqlashib

boraverdi va osmonga ko‘tarildi.
52 Shogirdlar esa Unga sajda qildilar va katta sevinch ila Quddusga qaytib bordilar.
53 Ular doimo Ma’badda bo‘lib, Xudoni olqishlar edilar*.

IZOHLAR

1:1-3 *Teofilus* — mazkur Xushxabar hamda Havoriylar faoliyati kitobi Teofilus uchun yozilgan (Havoriylar 1:1 ga qarang). Bu odam yuqori lavozim egasi bo‘lib, Xushxabar ta’limotidan boxabar edi. U haqda bundan boshqa hech qanday ma’lumot saqlanib qolmagan.

1:5 *Yahudiya shohi Hirod* — Buyuk Hirod unvoni bilan ham tanilgan bo‘lib, u miloddan oldingi 37-4 yillarda hukmronlik qilgan. Bu o‘rinda Yahudiya degan nom butun qadimgi Falastinga nisbatan ishlatilgan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi FALASTIN so‘ziga qarang.

1:5 *ruhoniy* — Quddusdagi Ma’badda xizmat qiladigan e’tiborli din rahnamosi. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi RUHONIY so‘ziga qarang.

1:5 *ruhoniy Abiyo urug‘i* — ruhoniylar Musoning akasi Horun naslidan kelib chiqqan bo‘lib, ularning jamiki urug‘lari 24 ta bo‘linmani tashkil qilar edi. Abiyo sakkizinchi bo‘linmadagi ruhoniylarning bobokaloni edi (1 Solnomalar 24:10 ga qarang).

1:5 *ruhoniylar* — yunoncha matnda *Horun*, Isroil xalqiga oliy ruhoniy bo‘lib xizmat qilgan birinchi inson va jamiki ruhoniylarning bobokaloni.

1:9 *...xushbo‘y tutatqilar tutatish...* — bu vazifa kuniga ikki mahal — bir marta ertalab va bir marta kechqurun bajarilar edi.

1:9 *qur’a* — qur’a tashlashda yog‘och bo‘laklari yoki toshlar ishlatilgan bo‘lib, shu orqali Xudoning xohish–irodasi aniqlangan. Ba’zan odamlar qur’a tashlab, Xudodan biror ishni qanday yoki qachon qilish kerakligini so‘rashgan.

1:15 *Onasining qornidayoq...* — yoki *Tug‘ilishi bilanoq*....

1:17 *Ilyos payg‘ambarning ruhi va qudratiga to‘lib...* — Ilyos payg‘ambar Eski Ahd davrida yashagan. U xalq orasida qilgan mo‘jizalari bilan dong taratgan edi (misol uchun, 3 Shohlar 18:1-46 ga qarang). Yana Malaki 4:5-6 ga qarang.

1:17 *Rabbimiz Masih* — yunoncha matnda *Rabbiy*, Masihga ishora (2:11 ga va o‘sha oyatning ikkinchi izohiga qarang).

1:28 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida quyidagi so‘zlar farishtaning gapiga qo‘shimcha qilingan: *Ayollar ichra muboraksan*.

1:29 *Maryam...sarosimaga tushdi* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *Maryam farishtani ko‘rib, uning so‘zlaridan sarosimaga tushdi*.

1:31 *Iso* — yunoncha matnda *Iisus*, bu ism ibroniycha *Yoshua* ismidan olingan bo‘lib, *Egamiz qutqaradi* ma’nosini ifodalaydi.

1:32 *Xudoyi Taoloning O‘g‘li* — Iso Masihning unvoni. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi XUDONING O‘G‘LI iborasiga qarang.

1:33 *Isroil xalqi* — yunoncha matnda *Yoqub xonadoni*, Eski Ahdda Isroil xalqi shu nom bilan ham atalgan.

1:35 *...tug‘adigan o‘g‘ling muqaddas bo‘ladi, U Xudoning O‘g‘li deb ataladi* — yoki *...tug‘adigan muqaddas O‘g‘ling Xudoning O‘g‘li deb ataladi*.

1:59 *...sakkizinchi kuni bolani sunnat qilgani...* — sunnat Xudoning Ibrohim va uning avlodi bilan qilgan ahd belgisi edi (Ibtido 17:9-14 ga qarang). Sunnat yahudiylarning Xudoga sodiqligini va Uning tanlagan xalqiga tegishli ekanini ko‘rsatadi.

1:69-70 *qudratli Najotkor* — yunoncha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *najotning shoxi* yoki *qutqaradigan shox*. Ho‘kizning shoxi kuch–qudrat ramzi edi, chunki ho‘kiz qadimiy Yaqin Sharqdagi eng kuchli hayvonlardan biri edi.

1:78 *ufq Nuri* — Masihning kelishiga ishora. Yana 2:30-32 ga qarang.

1:80 *cho‘l* — Iordan daryosining O‘lik dengizga quyiladigan joyiga yaqin bo‘lgan, daryodan g‘arbda joylashgan yerlar.

2:1 *Qaysar* — barcha Rim imperatorlariga berilgan unvon.

2:1 *Avgust* — Oktavian ismi bilan ham tanilgan bo‘lib, miloddan oldingi 27 yildan to milodiy 14 yilgacha hukmronlik qilgan.

2:1 *...butun Rim imperiyasidagi aholi ro‘yxatga olinsin...* — voyaga yetgan har bir inson imperator xazinasiga soliq to‘lashi kerak edi. Buni nazorat qilish maqsadida butun aholi ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim edi.

2:2 *Bu...o‘tkazildi* — yoki *Shunday qilib, Suriyada Kviriniyus hukmronlik qilgan paytdagi birinchi marta aholini ro‘yxatga olish o‘tkazildi*.

2:11 *Dovud shahri* — ya’ni Baytlahm (shu bobning 4–oyatiga qarang).

2:11 *Masih* — bu unvonni yahudiylar kelajakda ularni dushmanlaridan qutqaradigan va butun yer yuzidagi xalqlar ustidan hukmronlik qiladigan insonga nisbatan ishlatganlar. Eski Ahdda Masihning qiladigan ishlari haqida bashoratlar yozilgan. Yangi Ahdga ko‘ra Rabbimiz Iso o‘sha Masihdir. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi MASIH so‘ziga qarang.

2:14 *...Xudodan marhamat topgan yerdagi bandalarga tinchlik kelsin* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *yerdagi bandalarga tinchligu marhamat*.

2:21 *Chaqaloqni sunnat qiladigan payt* — 1:59 izohiga qarang.

2:22-24 *Musoning qonuniga ko‘ra...* — Levilar 12:1-4 ga qarang.

2:22-24 *Egamizning...amrni bajardilar* — Levilar 12:6-8 ga qarang.

2:22-24 *Egamizning qonunida...yozilgan* — Chiqish 13:1-2, 11-16 ga qarang.

2:37 *U sakson to‘rt yil davomida beva bo‘lib...* — yoki *U sakson to‘rt yoshda edi*....

2:41 *Fisih bayrami* — Fisih ziyofatiga va undan keyin yetti kun davomida nishonlanadigan Xamirturushsiz non bayramiga ishora (22:1 ga qarang). Bu bayramlar Isroil xalqining Misrdagi qullikdan ozod bo‘lishi munosabati bilan nishonlanar edi (Chiqish 12:1-42, 13:3-10 ga qarang).

2:49 *samoviy Otam* — Xudoga ishora. Iso ko‘pincha Ota unvonini Xudoga nisbatan ishlatgan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi XUDONING NOMLARI iborasi ostida berilgan OTA so‘ziga qarang.

2:49 *Men samoviy Otamning uyida bo‘lishim...* — yoki *Men samoviy Otamning ishlari bilan mashg‘ul bo‘lishim*....

3:1 *Qaysar* — barcha Rim imperatorlariga berilgan unvon.

3:1 *Qaysar Tiberiy hukmronligining o‘n beshinchi yili* — taxminan milodiy 28 yoki 29 yil (Tiberiy milodiy 14-37 yillarda hukmronlik qilgan). O‘sha paytda Iso taxminan 30 yoshlarda edi (shu bobning 23–oyatiga qarang).

3:1 *...Po‘ntiy Pilat hokim edi* — Rim hukumati tomonidan tayinlangan hokim.

3:1 *Hirod* — Antipas ismi bilan ham tanilgan bo‘lib, Buyuk Hirodning o‘g‘li edi.

3:1 *...hukmronlik qilar...* — yunoncha matnda bu uchala hukmdor *tetrarx* degan unvon bilan tilga olingan. Bu unvon Rim imperiyasi tomonidan joriy qilingan bo‘lib, hokimiyati cheklangan va faqat Rim hukumati ruxsati bilan ish yuritadigan hukmdorga nisbatan qo‘llanilgan. Avom xalq orasida bunday hukmdor shoh deb atalar edi (misol uchun, Matto 14:9, Mark 6:14 ga qarang).

3:2 *...Xanan va Kayafas esa oliy ruhoniy edilar...* — Xanan milodiy 6-15 yillarda oliy ruhoniy bo‘lib xizmat qilgan. Rim hukumati uni bu lavozimdan chetlatgandan keyin uning o‘rnini kuyovi Kayafas egallab, milodiy 18-37 yillarda oliy ruhoniy bo‘lib xizmat qildi. Xanan o‘z vazifasidan chetlatilganiga qaramay, xalq uni hamon oliy ruhoniy deb bilardi, u yahudiylar jamiyatida yuksak e’tibor va nufuzga ega edi.

3:2 *cho‘l* — 1:80 izohiga qarang.

3:4-6 Muallif bu o‘rinda Ishayo 40:3-5 ning qadimiy yunoncha tarjimasidan foydalangan.

3:12 *Soliqchilar* — bu soliqchilar odatda yahudiy bo‘lib turib, Rim davlatiga ishlagani uchun hamma ularni yomon ko‘rardi. Ko‘p soliqchilar firibgarlik qilib, xalqdan soliq uchun keragidan ortiqroq pul undirardilar–da, bu pulni o‘z cho‘ntaklariga urardilar. Mana shuning uchun ham xalq soliqchilardan nafratlanib, ularni o‘z imonini sotgan xoinlar deb bilardi.

3:16 *olov* — imonlilarni poklaydigan Muqaddas Ruhning qudratiga ishora bo‘lishi mumkin (Havoriylar 1:5, 8, 2:1-4, 11:16 ga qarang). Ammo bu o‘rinda olov so‘zi Hukm kuniga ishora qilayotganining ehtimoli ko‘proq (shu bobning 7-9, 17–oyatlariga qarang). Oxiratda odamlar Isoga va Uning ta’limotiga ishongan–ishonmaganlariga qarab hukm qilinadilar.

3:19 *Viloyat hukmdori* — yunoncha matnda *Tetrarx*. Shu bobning 1–oyatiga berilgan oxirgi izohga qarang.

3:22 *Sen Mening sevikli O‘g‘limsan* — Zabur 2:7 ga qarang.

3:22 *Sendan nihoyatda mamnunman* — Ishayo 42:1 ga qarang.

3:23 *Odamlar Uni Yusufning o‘g‘li deb hisoblardilar* — Yusuf Isoning asl otasi emasdi (1:26-37 ga va Matto 1:18-22 ga qarang).

3:23 *...o‘g‘li...* — mazkur ro‘yxatdagi *o‘g‘li* so‘zining ma’nosi *avlodi* bo‘lishi ham mumkin. Odatda Muqaddas Kitobda berilgan nasabnomalarda hamma nasllarning to‘liq ro‘yxati berilmay, faqat ma’lum bir avlodning ma’lum bir ajdoddan kelib chiqqanini ko‘rsatadi. Ba’zi hollarda esa biror nasabdan tarqalgan nasllarning sonini ko‘rsatish maqsadida nasabnomaga ismlar kiritiladi (Matto 1:17 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang). Mazkur nasabnomada Isodan Odam Atogacha bo‘lgan 77 ta nasl tilga olingan. Odatda 77 soni barkamollikni bildiradi. Iso nafaqat Isroil xalqi uchun, balki dunyodagi jamiki xalqlarga

najot berish uchun kelgan. Buni koʻrsatish maqsadida, bu oʻrinda Iso Masihning nasabi to insoniyat bobokaloni boʻlmish Odam Atogacha koʻrsatilgan.

3:27 *Zarubabel* — Isroil xalqi Bobildagi surgundan qaytib kelgandan keyin xalqqa boshchilik qilgan e'tiborli yetakchi edi (Ezra 2:1-2, 3:1-2, Xaggey 1:1 ga qarang). Nasabnomaning birinchi qismi surgundan keyin yashagan 21 naslni oʻz ichiga olgan.

3:31 *Natan* — nasabnomaning bu ikkinchi qismi shoh Dovud davridan to xalq Bobilga surgun boʻlgan paytgacha yashagan 21 naslni oʻz ichiga olgan.

3:33 *Ominadav — Adminning oʻgʻli, Admin — Arniyning oʻgʻli, Arniy — Xazronning oʻgʻli* — yunoncha matndan. Ba'zi yunon qoʻlyozmalarida *Ominadav — Ramning oʻgʻli, Ram — Xazronning oʻgʻli* (yana 1 Solnomalar 2:9-10 ga qarang). Yana shu bobning 23–oyatiga berilgan ikkinchi izohga qarang.

3:34 *Is'hoq* — nasabnomaning bu uchinchi qismi 14 naslni oʻz ichiga olgan.

3:37 *Xanoʻx* — sharq yozma adabiyotida Idris paygʻambar deb e'tirof etilgan.

3:38 *Odam Ato* — nasabnomaning bu soʻnggi qismi 21 naslni oʻz ichiga olgan.

3:38 *Xudoning oʻgʻli* — Odam Ato Xudoning suratida yaratilganiga ishora qilinadi (Ibtido 1:26-27, 5:1-3 ga qarang). Xuddi shu singari, butun odamzod Xudodan kelib chiqqan (Havoriylar 17:28-29 ga qarang).

4:3 *Xudoning Oʻgʻli* — Iso Masihning unvoni. Toʻliqroq ma'lumotga ega boʻlish uchun lugʻatdagi XUDONING OʻGʻLI iborasiga qarang.

4:4 *Inson faqat non bilan yashamaydi* — yunoncha matndan. Ba'zi yunon qoʻlyozmalarida *Inson faqat non bilan emas, balki Xudoning har bir soʻzi bilan yashaydi*. Qonunlar 8:3 ga qarang.

4:5 *tepalik* — yunoncha matndan. Ba'zi yunon qoʻlyozmalarida *baland bir togʻ*.

4:8 *Yozilganki…* — yunoncha matndan. Ba'zi yunon qoʻlyozmalarida *Yoʻqol koʻzimdan, shayton! Yozilganki*.

4:8 Qonunlar 6:13 ga qarang.

4:10-11 Zabur 90:11-12 ga qarang.

4:12 Qonunlar 6:16 ga qarang.

4:18 Yunoncha matndan. Ba'zi yunon qoʻlyozmalarida quyidagi soʻzlar keyingi misra sifatida qoʻshimcha qilingan: *Dilabgorlarga shifo bermoq uchun*.

4:18-19 Muallif bu oʻrinda Ishayo 61:1-2 ning qadimiy yunoncha tarjimasidan foydalangan. *Asirlarni ozod qilmoq uchun* iborasi Ishayo 58:6 dan olingan.

4:25 *…Ilyos paygʻambar davrida…* — 3 Shohlar 17:1-24 ga qarang.

4:27 *…Elishay paygʻambar davrida…* — 4 Shohlar 5:1-14 ga qarang.

4:27 *teri kasalligi* — bu ibora yunonchada har xil teri kasalliklariga nisbatan ishlatilgan soʻzning tarjimasidir. Odatda bu ibora moxov kasalligiga ishora deb tushuniladi.

4:38 *Shimoʻn* — Butrus ismi bilan ham tanilgan, Butrus ismini unga Iso qoʻygan edi (6:14 ga qarang).

4:40 *Quyosh botayotgan paytda…* — yahudiylarning urf–odatiga koʻra, yangi kun quyosh

botgandan keyin boshlanar edi. Matnda tasvirlangan payt Shabbat kunining yakuni va yakshanba kunining boshlanishi edi. Yahudiylarda yakshanba haftaning birinchi kuni hisoblanar edi.

4:41 *"Sen Xudoning O'g'lisan!"* — yunoncha matndan. Ba'zi yunon qo'lyozmalarida *"Sen Xudoning O'g'li — Masihsan!"*

4:43 *Xudoning Shohligi* — Xudoning hozirgi paytda insonlar hayotidagi hukmronligi va oxiratda har bir yaratilgan mavjudotning yangilanishiga ishora. To'liqroq ma'lumotga ega bo'lish uchun lug'atdagi XUDONING SHOHLIGI iborasiga qarang.

4:44 *yurt* — yunoncha matnda *Yahudiya*. Bu o'rinda Yahudiya deganda butun qadimgi Falastin nazarda tutilgan.

5:1 *Jalila ko'li* — yunoncha matnda *Genisaret ko'li*, Jalila ko'lining yana bir nomi. Genisaret Kafarnahum shahridan janubi–g'arbdagi serhosil tekislikdir (Matto 14:34, Mark 6:53 ga qarang).

5:3 *Shimo'n* — Butrus ismi bilan ham tanilgan, Butrus ismini unga Iso qo'ygan edi (6:14 ga qarang).

5:8 *Shimo'n* — yunoncha matnda *Shimo'n Butrus*. Shu bobning 3–oyati izohiga qarang.

5:12 *teri kasalligi* — bu ibora yunonchada har xil teri kasalliklariga nisbatan ishlatilgan so'zning tarjimasidir. Odatda bu ibora moxov kasalligiga ishora deb tushuniladi. Teri kasalliklaridan birortasiga yo'liqqan kishi harom hisoblanar edi. Xasta odam kasalligini boshqalarga yuqtirmasligi va ularni harom qilmasligi uchun boshqalardan ajratib qo'yilar edi (Levilar 13:45-46 ga qarang).

5:14 *Poklanganingni hammaga isbot qilish uchun…* — yoki *Men Xudoning qonuniga jiddiy qarashimni ruhoniylar ko'rishlari uchun…*.

5:14 *Borib…Muso amr qilgan qurbonliklarni keltir* — Levilar 14:1-32 ga qarang.

5:17 *farziylar* — yahudiylarning muhim bir diniy mazhabi. Farziylar Tavrot qonunlariga qat'iy rioya qilardilar, og'zaki ravishda tarqalgan urf–odatlarga hamda poklanish udumlariga izchil amal qilardilar. To'liqroq ma'lumotga ega bo'lish uchun lug'atdagi FARZIY so'ziga qarang.

5:17 *Tavrot tafsirchilari* — Musoning qonunini juda yaxshi bilgan ziyoli odamlar. To'liqroq ma'lumotga ega bo'lish uchun lug'atdagi TAVROT TAFSIRCHISI iborasiga qarang.

5:17 *Isoda Egamizning…qudrati bor edi* — 4:14 ga qarang.

5:19 *…uyning tomiga chiqib…* — qadimgi Falastinda uylarning tomi tekis bo'lar edi. Tomga uyning devori bo'ylab qurilgan zina orqali chiqilardi.

5:19 *…tomdan teshik ochdilar. So'ng sholni o'sha teshikdan…tushirdilar* — yunoncha matnda *…uyning tomiga chiqib, sholni tomning xom g'ishtlari orasidan…tushirdilar*. Qadimgi Falastinda uylarning tomi yopilganda, ko'ndalang yotqizilgan to'sinlar ustiga shox–shabbalar terilib, ustiga loy va somon qorishmasidan tayyorlangan lo'mboz bosilar edi. Ba'zida tomni yopishda yapaloq, yupqa xom g'ishtlardan foydalanilardi.

5:24 *Inson O'g'li* — Iso Masih ko'pincha O'ziga nisbatan ishlatgan unvon. To'liqroq ma'lumotga ega bo'lish uchun lug'atdagi INSON O'G'LI iborasiga qarang.

5:27 *soliqchi* — 3:12 izohiga qarang.

5:27 *Levi* — Matto ismi bilan ham tanilgan (Matto 9:9 ga qarang).

5:37 *...yangi sharob meshni yorib yuboradi...* — qadimgi paytlarda suyuqlik odatda hayvon terisidan qilingan meshlarda saqlanardi. Uzum sharbati bijg‘ib, sharobga aylanganda, meshlar shishardi. Mesh eskirgani sari o‘z cho‘ziluvchanligini yo‘qotgani bois, yangi sharob eski meshga solinganda, meshni yorib yuborardi.

5:38 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida quyidagi so‘zlar oyatga qo‘shimcha qilingan: *Shunda u ham, bu ham saqlab qolinadi*.

6:1 *Shabbat kunlarining birida...* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *ikkinchi ilk Shabbat*, bu iboraning ma’nosi bahsli.

6:1 *Uning shogirdlari...donlarini yeyayotgan edilar* — Tavrot qonunlariga ko‘ra, och qolgan odam birovning dalasidan boshoqlarni uzib, donini yeyishi mumkin edi (Qonunlar 23:24-25 ga qarang).

6:2 *Shabbat kuni qonunga xilof ish* — farziylar Tavrotdagi qonunni (Chiqish 34:21 ga qarang) o‘zlaricha jiddiy sharhlab, hatto inson hayotiga oid ikir–chikirlarni ham qonun darajasiga ko‘targanlar. Shuning uchun ular Isoning shogirdlari qilgan ishni Shabbat kuniga xilof ish deb hisoblaganlar.

6:3 *Dovud hamrohlari bilan och qolganda nimalar qilgani* — 1 Shohlar 21:1-6 ga qarang.

6:4 *muqaddas nonlar* — Levilar 24:5-9 ga qarang. Yana lug‘atdagi MUQADDAS NON iborasiga qarang.

6:9 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida quyidagi so‘zlar oyatga qo‘shimcha qilingan: *Ular indamadilar*.

6:15 *vatanparvar* — bu nom Shimo‘nning Rim imperiyasiga qarshilik ko‘rsatgan avom xalq harakatining a’zosi ekaniga ishora qilayotgan bo‘lishi mumkin. Ushbu harakat a’zolari siyosiy, iqtisodiy va diniy maqsadlarni ko‘zlagan edilar.

6:17 *Yahudiya* — bu o‘rinda Yahudiya degan nom butun qadimgi Falastinga nisbatan ishlatilgan.

6:48 *...uy mahkam o‘rnatilgan* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *uy tosh ustiga mahkam o‘rnatilgan*.

7:2 *Rim* — o‘sha davrda qadimgi Falastin Rim imperiyasi hukmronligi ostida edi.

7:11 *Uning shogirdlari* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *ko‘plab shogirdlari*.

7:17 *Yahudiya* — 6:17 izohiga qarang.

7:22 *teri kasalligi* — 5:12 izohiga qarang.

7:27 Malaki 3:1 ga qarang.

7:28 *Yahyodan ulug‘i yo‘q* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *Yahyo cho‘mdiruvchidan ulug‘roq biron payg‘ambar yo‘q*.

7:29 *soliqchilar* — 3:12 izohiga qarang.

7:37 *ganch* — bu o‘rinda ishlatilgan yunoncha so‘z naqqoshlikda qo‘llaniladigan oqish yoki sarg‘ish rangli toshni bildiradi. Odatda bu toshdan yasalgan idishlarda atir moyni

uzoq vaqt davomida saqlasa bo‘lardi.

7:41 *kumush tanga* — yunoncha matnda *dinor*. Bir dinor mardikorning bir kunlik ish haqi edi.

7:44-46 *…oyoqlarimni yuvgani suv bermading…[45]…Meni o‘pib kutib olmading…[46]…boshimga zaytun moyi surtmading…* — odatda mehmonlar kelganda, mezbon ularni uyiga olib kirishidan oldin, oyoqlarini yuvish uchun suv berar edi, chunki o‘sha davrda odamlar oyoq yalang yoki choriq kiyib yurganlari bois, oyoqlari chang bo‘lar edi. Shuningdek, mezbon mehmon bilan salomlashganda uning yuzidan o‘par edi, hurmatli mehmonning boshiga esa xushbo‘y ziravorlar qo‘shilgan zaytun moyini surtardi.

8:2 *Magdala* — Jalila ko‘lining g‘arbiy qirg‘og‘idagi qishloq.

8:3 *Hirod* — 3:1 ga va o‘sha oyatning to‘rtinchi izohiga qarang.

8:3 *Iso bilan Uning shogirdlari* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *Isoning*.

8:10 Ishayo 6:9 ga qarang.

8:15 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida quyidagi so‘zlar oyatga qo‘shimcha qilingan: *Iso bularni aytib: “Kimning eshitar qulog‘i bo‘lsa, eshitsin!” — deb xitob qildi*.

8:22 *Ko‘lning narigi tomoni* — Jalila ko‘lining sharqiy qirg‘og‘iga ishora.

8:26 *Gerasa* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *Gadara* (shu bobning 37–oyatida ham bor). Gerasa shahrida va uning atrofidagi qishloqlarda g‘ayriyahudiylar istiqomat qilardi.

8:28 *Xudoyi Taoloning O‘g‘li* — Iso Masihning unvoni. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi XUDONING O‘G‘LI iborasiga qarang.

8:30 *Tumonat* — yunoncha matnda *Legion*, ma’nosi *minglar*. Bu yunoncha so‘z Rimliklarning harbiy terminidan olingan bo‘lib, 6000 askardan iborat bo‘lgan bo‘linma ma’nosini ifodalaydi.

8:40 *Iso ko‘lning bu qirg‘og‘iga qaytib kelganda…* — Iso orqaga, ko‘lning g‘arbiy qirg‘og‘idagi Jalila hududiga qaytib kelgan edi (shu bobning 22–oyatiga va o‘sha oyatning izohiga qarang).

8:45 *Butrus* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *Butrus va Isoning boshqa shogirdlari*.

8:45 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida quyidagi so‘zlar oyatga qo‘shimcha qilingan: *Nega yana, Menga kim qo‘l tegizdi, deb so‘raysiz?*

8:48 *Qizim* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *dadil bo‘l, qizim*.

8:52 *Hamma qizcha uchun dod–faryod qilayotgan edi* — ba’zan dafn marosimlari paytida dod–faryod qilib, aytib yig‘lash uchun yig‘ichilar yollanardi.

8:54 *Iso esa qizchaning qo‘lidan ushlab…* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *Iso esa hammani tashqariga chiqarib, qizchaning qo‘lidan ushlab*.

9:5 *…ularga ogohlantirish tariqasida oyoqlaringizdagi changni qoqib ketinglar* —

odamlar Xudoning elchilarini rad etganlari uchun, havoriylar oyoqlaridagi changni qoqib ketardilar. Havoriy Pavlus ham shunga o‘xshash harakatni ishlatgan (Havoriylar 18:6 ga qarang). Bu harakat o‘sha odamlarning ayanchli qismatini, ya’ni Xudo tomonidan rad etilishini va Uning shohligidan benasib qolish xavfini anglatardi.

9:7 *Viloyat hukmdori* — yunoncha matnda *Tetrarx*. 3:1 ning oxirgi izohiga qarang.

9:7 *Hirod* — 3:1 ga va o‘sha oyatning to‘rtinchi izohiga qarang.

9:8 *Ilyos payg‘ambar* — Eski Ahd davrida yashagan eng buyuk payg‘ambarlardan biri. Yahudiylar Ilyosning qaytib kelishini intizorlik bilan kutishardi (Malaki 4:5-6 ga qarang).

9:10 *Havoriylar qaytib keldilar…* — shu bobning 6–oyatiga qarang.

9:10 *Baytsayda shahri* — bu o‘rinda ko‘lning shimoli–sharq tomonidagi shaharga yoki ko‘lning shimoli–g‘arb tomonida joylashgan, Jaliladagi Baytsayda degan shaharga ishora qilinayotgan bo‘lishi mumkin (Yuhanno 12:21 ga qarang). An’anaga ko‘ra, Iso bir necha ming kishini to‘ydirgan joy Jaliladagi Baytsaydaga yaqin edi.

9:10 *…ularni Baytsayda shahriga olib ketdi* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *ularni Baytsayda shahri yaqinidagi xilvat joyga olib ketdi*.

9:19 *…Yahyo cho‘mdiruvchi…Ilyos…* — shu bobning 7-8–oyatlariga va 8–oyatning izohiga qarang.

9:20 *Masih* — bu unvonni yahudiylar kelajakda ularni dushmanlaridan qutqaradigan va butun yer yuzidagi xalqlar ustidan hukmronlik qiladigan insonga nisbatan ishlatganlar. Eski Ahdda Masihning qiladigan ishlari haqida bashoratlar yozilgan. Yangi Ahdga ko‘ra Rabbimiz Iso o‘sha Masihdir. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi MASIH so‘ziga qarang.

9:22 *bosh ruhoniylar* — jamiyatning boshqa e’tiborli odamlari qatorida Oliy kengash a’zolari edilar. Oliy kengash yahudiylarning siyosiy va diniy kengashi edi. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi BOSH RUHONIYLAR iborasiga qarang.

9:23 *…o‘z xochini ko‘tarib…* — Rim imperiyasi davrida o‘lim jazosining bir turi mahkumni xochga mixlash edi. Bu jazo hammaga ma’lum bo‘lgan. Odatda jinoyatchi o‘zi mixlanadigan xochning ko‘ndalang yog‘ochini hukm ijro etiladigan joyga ko‘tarib olib borar edi (to‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi XOCH so‘ziga qarang). Iso Masih mana shu timsol orqali shogirdlarini hamda Unga ishonganlarni o‘z manfaatlarini ko‘zlamasdan, Unga butunlay o‘zlarini bag‘ishlab va itoat qilib hayot kechirishga, hattoki U uchun o‘limga ham rozi bo‘lishga da’vat etadi.

9:30-31 *…olamdan o‘tishi…* — yunoncha matnda *chiqishi*, Isoning o‘limi va tirilishiga ishora qiladigan so‘z. Bu so‘z Eski Ahdda bayon qilingan voqeani, ya’ni Xudo O‘z xalqini Misrdan olib “chiqish”ini eslatish maqsadida qo‘llanilgan bo‘lishi mumkin. Xudo Isroil xalqini Misrdagi qullikdan ozod qilgan edi, Isoning o‘limi va tirilishi orqali esa U tez orada insoniyatni buyuk najotga erishtiradi.

9:35 *Bu Mening O‘g‘limdir, Men Uni tanladim* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *bu Mening sevikli O‘g‘limdir*.

9:53 *Samariyaliklar* — yahudiylar va Samariyaliklar uzoq vaqt davomida bir–birlariga

dushman bo‘lib kelganlar. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi SAMARIYALIK so‘ziga qarang.

9:54 *…deb buyuramiz* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *deb Ilyos payg‘ambar qilganiday buyuramiz*.

9:55-56 *…ularni koyidi. [56] Shundan keyin ular boshqa qishloqqa ketdilar* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *ularni koyib dedi: “Sizlar qanday ruhda borayotganingizni bilmaysizlar. [56] Inson O‘g‘li inson jonini halok qilish uchun emas, xalos qilish uchun kelgan.” Shundan keyin ular boshqa qishloqqa ketdilar*.

9:60 *ruhan o‘lik bo‘lganlar* — yunoncha matnda *o‘lik bo‘lganlar*.

10:1 *yetmish ikki* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *yetmish*. Shu bobning 17–oyatida ham bor.

10:11 *Ogohlantirish tariqasida shahringizdan oyoqlarimizga yopishgan changni ham qoqib ketyapmiz* — 9:5 izohiga qarang.

10:12 *Sado‘m shahri* — aholisining o‘ta buzuqligi oqibatida Egamiz vayron qilgan shahar (Ibtido 18:16-19:28 ga qarang).

10:13 *Tir bilan Sidon shaharlari* — Finikiyada muhim ahamiyatga ega bo‘lgan g‘ayriyahudiylar shaharlari. Bu shaharlar Jaliladan shimoli–g‘arbda, O‘rta yer dengizi bo‘yida joylashgan edi. Bugungi kunda bu yer Livan mamlakatining janubiy qismini tashkil qiladi.

10:13 *…qanorga o‘ranib, kulga o‘tirib…* — qanor dag‘al qoramtir mato bo‘lib, echki yoki tuya junidan to‘qilgan. Qanorga o‘ranib olish va kulga o‘tirish umidsizlikni va qayg‘uli holatni ifodalaydi. Ko‘pincha bu harakat Xudodan kechirim so‘rab ibodat qilish va Undan madad tilash bilan birgalikda amalga oshirilgan.

10:19 *iblis* — yunoncha matnda *dushman*, bu so‘z iblisga nisbatan aytilgan (Matto 13:39, 1 Butrus 5:8 ga qarang).

10:27 Qonunlar 6:5 ga qarang.

10:27 Levilar 19:18 ga qarang.

10:30 *…Quddusdan Yerixoga…* — Quddusdan Yerixogacha bo‘lgan masofa qariyb 25 kilometrni tashkil qilardi. Sahro orqali va g‘orlar yonidan o‘tgan bu yo‘lda qaroqchilar yashirinib yurgani uchun, shu yo‘l nihoyatda xatarli hisoblanar edi.

10:31 *ruhoniy* — Quddusdagi Ma’badda xizmat qiladigan e’tiborli din rahnamosi. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi RUHONIY so‘ziga qarang.

10:32 *levi* — Quddusdagi Ma’badda ruhoniyga xizmat qilishda yordam beradigan odam. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi LEVI, LEVILAR so‘ziga qarang.

10:33 *Samariyalik* — yahudiylar Samariyaliklardan hazar qilishar edi. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi SAMARIYALIK so‘ziga qarang.

10:34 *…yaralariga zaytun moyi, sharob surib…* — bular qadimgi paytlarda malham sifatida ishlatilardi. Zaytun moyi og‘riq qoldirib, terini qurib ketishdan saqlar edi (Ishayo 1:6 ga qarang). Sharob yarani dezinfeksiya qilar edi.

10:35 *Ertasi kuni* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *Ertasi kuni*

jo‘nayotganda.

10:35 *kumush tanga* — yunoncha matnda *dinor*. Bir dinor mardikorning bir kunlik ish haqi edi.

11:2 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida quyidagi so‘zlar oyatga qo‘shimcha qilingan: *Osmonda bo‘lgani kabi, yerda ham Sening irodang bajo bo‘lsin*.

11:4 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida quyidagi so‘zlar oyatga qo‘shimcha qilingan: *Yovuz shaytondan xalos qilgin*.

11:11 *Orangizdan qaysi bir ota…ilon beradi?* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *Orangizdan qaysi bir ota o‘g‘li non so‘raganda, unga tosh beradi? Yoki baliq so‘raganda, unga ilon beradi*.

11:15 *ins–jinslar hukmdori Baalzabul* — shayton shohligidagi qudratli bir mavjudotga yoki shaytonning o‘ziga ishora.

11:29 *Yunusning alomati* — Yunusni nahang baliq yutib yuborgandan keyin, Xudo uni nahang baliqning qornidan xalos etgandi (Yunus 2:1, 11 ga qarang). Iso Yunusning hayotidagi bu voqeani tilga olib, O‘zining o‘limi va tirilishiga ishora qilmoqda (Matto 12:39-40 ga qarang).

11:30 *Naynavo* — Yunus davrida Ossuriya shohligining poytaxti edi. Bu shahar Nineviya nomi bilan ham ma’lum.

11:30 *…Naynavo aholisiga alomat…hozirgi nasl uchun alomat…* — Yunusni Xudo yuborganini anglagan Naynavo aholisi o‘z gunohlaridan tavba qilgandi (Yunus 3:1-10 ga qarang). Isoning o‘limi va tirilishi ham hozirgi zamon odamlariga alomat bo‘lib xizmat qiladi. Odamlar Isoni Xudodan yuborilgan deb qabul qilib, o‘z gunohlaridan tavba qilishlari darkor (shu bobning 32–oyatiga qarang).

11:31 *Janub malikasi* — Shava malikasi nazarda tutilgan (3 Shohlar 10:1-10 ga qarang).

11:38 *qo‘llarini yuvmagani* — farziylar ovqatlanishdan oldin qo‘llarining yuvilishiga alohida e’tibor qaratishardi. Ayniqsa ko‘chada, odamlar orasida bo‘lib kelgandan keyin, dasturxonga o‘tirishdan oldin urf–odatlarga ko‘ra qo‘llarini yuvib, o‘zlarini poklab olishardi.

11:42 *ushr* — har qanday daromadning o‘ndan bir qismi. Levilar 27:30-33, Qonunlar 14:22-29, 26:12-13 ga qarang.

11:44 *Holingizga voy!* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *Holingizga voy, ey tafsirchilar va farziylar! Sizlar ikkiyuzlamachisizlar!*

11:44 *Sizlar belgisi yo‘q qabrlarga o‘xshaysizlar…o‘sha qabrlar…* — yahudiylar qabrlarni harom deb bilishardi, shuning uchun qabrga tegib ketgan odam ham harom bo‘lardi (Sahroda 19:16 ga qarang). Farziylar tashqi tozalik, diniy poklikka rioya qilib, haqiqiy solihlikka e’tiborsiz bo‘lganlari uchun Xudoning nazarida nopok edilar. Ularning urf–odatlari nafaqat o‘zlarini, balki ularning urf–odatlariga rioya qilgan hamma odamni bulg‘ar edi.

11:51 *…Hobil…Zakariyo…* — Eski Ahdda bayon qilingan voqealarga ko‘ra, birinchi o‘ldirilgan inson — Hobil, oxirgi o‘ldirilgan inson esa Zakariyo edi (Ibtido 4:8, 2 Solnomalar 24:20-22 ga qarang).

11:53 *Iso u yerdan chiqishi bilanoq…* — yunoncha matndan. Ba'zi yunon qo'lyozmalarida *Iso bularni endi aytib tugatar ekan*.

12:1 *xamirturush* — majoziy ma'noda ishlatilgan bo'lib, odatda boshqalarga salbiy ta'sir ko'rsatadigan ta'limotlar va xulq–atvor nazarda tutilgan.

12:1 *ikkiyuzlamachiligi* — Matto 23:27-28 ga qarang.

12:6 *ikki tanga* — yunoncha matnda *ikki assarion*, Rim imperiyasidagi ikki mis chaqa. O'n olti *assarion* bir *dinor* qiymatiga to'g'ri kelardi. Bir dinor mardikorning bir kunlik ish haqi edi.

12:10 *…kim Muqaddas Ruhga kufrlik qilsa…* — Xudoga ishonishdan bosh tortib, Muqaddas Ruhning ishiga qarshilik ko'rsatadigan odamga ishora qiladi.

12:27 *shoh Sulaymon* — 3 Shohlar 10:23-27 ga qarang.

12:33 *…xazinangizni kuya yeya olmaydi* — qadimgi paytlarda qimmatbaho kiyimlar va gilamlar xazina hisoblanar edi.

13:1 *hokim Pilat* — 3:1 ga va o'sha oyatning uchinchi izohiga qarang.

13:4 *Siloam qishlog'i* — Quddus shahrining yonida joylashgan.

13:19 *xantal urug'i* — o'sha zamonda odamlar xantal urug'ini eng mayda urug' deb bilishardi.

13:21 *bir tog'ora* — yunoncha matnda *uch saton*, taxminan 22 kiloga to'g'ri keladi.

13:28 *Yoqub* — Is'hoqning o'g'li, Ibrohimning nabirasi.

13:31 *Hirod* — 3:1 ga va o'sha oyatning to'rtinchi izohiga qarang.

13:35 Zabur 117:26 ga qarang.

14:5 *farzandingiz* — yunoncha matndan. Ba'zi yunon qo'lyozmalarida *eshagingiz*.

14:24 Yunoncha matndan. Ba'zi yunon qo'lyozmalarida quyidagi so'zlar oyatga qo'shimcha qilingan: *Chunki da'vat etilganlar ko'p, ammo tanlanganlar ozdir*.

14:26 *Meni…sevishi kerak* — yunoncha matndan so'zma–so'z tarjimasi *Ota–onasidan, xotini va bola–chaqasidan, aka–uka va opa–singillaridan, hatto o'z jonidan nafratlanishi kerak*. Biroq Iso bu so'zlari bilan izdoshlarini tug'ishgan jigarlaridan yoki o'zlaridan nafratlanishga undamoqchi emas. *Nafrat* so'zi bu o'rinda mubolag'a tarzida ishlatilgan bo'lib, shogirdlarning Isoga bo'lgan sevgisi birinchi darajali va nihoyatda yuksak bo'lishi kerakligini ko'rsatmoqchi.

14:27 *O'z xochini ko'tarib…* — 9:23 izohiga qarang.

15:1 *soliqchilar* — 3:12 izohiga qarang.

15:8 *kumush tanga* — yunoncha matnda *draxma*. Draxma yunon tangasi edi. Qiymati Rimdagi bir *dinor* qiymatiga teng kelar edi. Bir dinor mardikorning bir kunlik ish haqi edi.

15:15 *cho'chqalar* — yahudiylar cho'chqalarni harom deb bilganlari uchun, cho'chqa boqish eng sharmandali ish hisoblanardi (Qonunlar 14:8 ga qarang).

16:6 *Ikki yuz ko'za…yuz ko'za…* — yunoncha matnda *Yuz bat…ellik bat…*, taxminan 2200 litrga va 1100 litrga to'g'ri keladi.

16:7 *Ming tog‘ora…sakkiz yuz tog‘ora…* — yunoncha matnda *Yuz kor…sakson kor…*, taxminan 22 tonnaga va 18 tonnaga to‘g‘ri keladi.

16:8 *nur ahli* — Osmon Shohligidan bahramand bo‘ladigan Xudoning xalqiga ishora.

16:16 *Tavrot va Payg‘ambarlar bitiklari* — odatda Eski Ahd kitoblari to‘plami shu nom bilan ataladi (24:44 izohiga qarang).

16:29 *Musoning va payg‘ambarlarning bitiklari* — shu bobning 16–oyati izohiga qarang.

17:2 *Bu kichiklarning birontasi* — Iso Masihga imon keltirgan odamlar, ayniqsa kichik bola singari, ojiz va qarovga muhtoj bo‘lganlar nazarda tutilgan (Matto 18:1-6 ga qarang).

17:6 *zig‘irday* — yunoncha matnda *xantal urug‘iday*. O‘sha zamonda odamlar xantal urug‘ini eng mayda urug‘ deb bilishardi.

17:12 *teri kasalligi* — 5:12 izohiga qarang.

17:14 *…o‘zlaringni ruhoniylarga ko‘rsatinglar* — Iso ularga shifo berishini bilgan holda, Tavrot qoidasiga binoan, ularni ruhoniylarning oldiga yubordi. Ruhoniylar teri kasalligiga chalingan bu odamlarni nazoratdan o‘tkazib, sog‘ yoki kasal deb e’lon qilishlari kerak edi (Levilar 14:1-32 ga qarang). Yana 5:12-14 ga qarang.

17:16 *Samariyalik* — yahudiylar Samariyaliklardan hazar qilishar edi. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi SAMARIYALIK so‘ziga qarang.

17:26 *Nuh davrida* — Ibtido 6:5-7:23 ga qarang.

17:28 *Lut* — Ibtido 19:1-29 ga qarang.

17:31 *tomning ustida bo‘lgan kishi* — u zamonlarda uylarning tomi tekis bo‘lib, odamlar tomga chiqib dam olishardi.

17:32 *Lutning xotini* — Ibtido 19:16-17, 24-26 ga qarang.

17:35-36 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida quyidagi so‘zlar 36–oyatni tashkil etib, qo‘shimcha qilingan: *Ikki kishi dalada bo‘lsa, biri olinadi, biri qoldiriladi*.

17:37 *Kalxatlar…sizlarga shu singari ayon bo‘ladi* — yunoncha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *Murda qayerda bo‘lsa, kalxatlar ham o‘sha yerda to‘planadi*.

18:10 *soliqchi* — 3:12 izohiga qarang.

18:20 Chiqish 20:12-16, Qonunlar 5:16-20 ga qarang.

18:29 *…uy–joyini…qoldirgan odam* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *uy–joyini yoki ota–onasini yo aka–ukalarini yoki opa–singillarini yo xotinini yoki bolalarini qoldirgan odam*.

18:32 *g‘ayriyahudiylar* — o‘sha davrda Yahudiyada hukmronlik qilgan Rim imperiyasi amaldorlariga ishora.

18:38 *Dovud O‘g‘li* — yahudiylar shoh Dovud naslidan kelib chiqadigan Masihni shunday nom bilan atashar edi. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi MASIH so‘ziga qarang.

19:2 *soliqchilar* — 3:12 izohiga qarang.

19:4 *shikamora–anjir daraxti* — anjirning qadimgi Yaqin Sharqda keng tarqalgan bir

turi. Kattaligi yong‘oq daraxtiday, barglari esa tut barglariga o‘xshash bo‘lib, yil davomida bir necha bor hosil beradigan sersoya daraxt.

19:9 *Ibrohimning o‘g‘lidir* — ya’ni Ibrohimning avlodi va Xudoning xalqiga mansub bo‘lgan inson ma’nosida kelgan.

19:13 *bir tilla* — yunoncha matnda *bir mina*. Bu yunoncha pul birligining qiymati mardikorning 100 kunlik ish haqi miqdoriga teng keladi.

19:29 *Zaytun tog‘i* — Quddus shahrining sharqiy devori bo‘ylab o‘tgan Qidron soyligining narigi tomonidagi tepalik.

19:30 *Anavi qishloq* — ya’ni Baytfagiya (Matto 21:1-2 ga qarang).

19:38 *Egamiz nomidan kelayotgan Shoh baraka topsin!* — Zabur 117:26 ga qarang.

19:44 *Seni shu qadar vayron qiladilarki…* — milodiy 70 yilda Tit boshchiligida Rim qo‘shini Quddusni va u yerdagi Ma’badni butunlay vayron qilgan.

19:44 *Xudo seni qutqargani kelgandi, ammo sen bu imkoniyatni qo‘ldan boy berding* — Xudo Isoni yahudiylarning oldiga qutqaruvchi Masih qilib yuborgan edi, lekin yahudiylar ko‘p o‘tmay Undan voz kechishadi.

19:45 *savdo–sotiq qilayotganlar* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *sotuvchilar va xarid qiluvchilar*.

19:46 Ishayo 56:7 ga qarang.

19:46 *qaroqchilar uyasi* — Yeremiyo 7:11 ga qarang.

20:17 *tamal toshi* — qadimgi paytlarda qurilishda poydevor uchun qo‘yilgan birinchi va eng muhim tosh hisoblanardi. Bu tosh poydevorning bir burchagini hosil qilib, binoning qolgan qismi o‘sha toshning joylashuvi bo‘yicha qurilardi.

20:17 Zabur 117:22 ga qarang.

20:18 *bu tamal toshi* — Iso bu so‘zni ramziy ma’noda ishlatgan bo‘lib, O‘zini nazarda tutgan.

20:22 *Qaysar* — barcha Rim imperatorlariga berilgan unvon. Bu o‘rinda Qaysar Tiberiyga ishora qilingan (3:1 ga va o‘sha oyatning ikkinchi izohiga qarang).

20:22 *…Qaysarga soliq to‘lashimiz…* — yahudiylar Rim bosqinchilaridan g‘oyat nafratlanganlari uchun, ularga soliq to‘lashni aslo istamas edilar. Biroq soliq to‘lamaslik katta muammolarni keltirib chiqarar edi.

20:23 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida quyidagi so‘zlar oyatga qo‘shimcha qilingan: *Nega Meni sinab ko‘rmoqchisizlar?!*

20:24 *dinor* — Rim kumush tangasi. Bir dinor mardikorning bir kunlik ish haqi edi.

20:27 *Sadduqiylar* — yahudiylarning muhim bir diniy mazhabi. Farziylardan farqli ravishda, ular og‘zaki tarqalgan urf–odatlarni qabul qilmasdilar, balki faqatgina Tavrotda yozilgan qonun–qoidalarga rioya qilardilar. Ular o‘liklarning tirilishiga ham ishonmas edilar. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi SADDUQIY so‘ziga qarang.

20:28 *Muso bizga shunday yozib qoldirgan* — Qonunlar 25:5-6 ga qarang.

20:37 *…yonayotgan buta to‘g‘risidagi voqeada…* — Chiqish 3:1-6 ga qarang.

20:41 *Dovudning O‘g‘li* — 18:38 izohiga qarang.

20:42-43 *Mening o‘ng tomonim* — o‘ng tomon muruvvat va baraka o‘rni deb hisoblangan.

20:42-43 Zabur 109:1 ga va o‘sha oyatning birinchi izohiga qarang.

21:2 *ikki chaqa* — yunoncha matnda *ikki lepton*, o‘sha davrda ishlatilgan qiymati eng past tanga.

21:6 *…siz ko‘rib turganlarning hammasi vayron bo‘ladi* — milodiy 70 yilda Tit boshchiligida Rim qo‘shini Quddusni va u yerdagi Ma’badni butunlay vayron qilgan.

21:27 *Inson O‘g‘li…bulutlarda keladi* — Doniyor 7:13-14 ga qarang.

21:37 *Zaytun tog‘i* — 19:29 izohiga qarang.

22:1 *Xamirturushsiz non bayrami…Fisih…* — 2:41 izohiga qarang.

22:4 *Ma’bad mirshabboshilari* — Ma’badni qo‘riqlash va u yerda tartib saqlash uchun mas’ul bo‘lgan yahudiy harbiylari.

22:20 *yangi ahd* — Iso Masih butun odamzodning gunohini O‘z bo‘yniga olib, xochda o‘ldi. Shu orqali yangi ahdni kuchga kiritdi (Ibroniylar 8:6-13, 9:11-17 ga qarang). To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi AHD so‘ziga qarang.

22:31 *Shimo‘n* — Butrus ismi bilan ham tanilgan, Butrus ismini unga Iso qo‘ygan edi (6:14 ga qarang).

22:31 *…bug‘doyni g‘alvirdan o‘tkazishganday, shayton sizlarni sinovdan o‘tkazishga izn talab qildi* — bug‘doyni yanchgandan keyin, tozalash uchun odatda uni g‘alvirdan o‘tkazishadi. Bu o‘rinda mazkur ibora sinov ma’nosida kelgan. Shayton Isoning shogirdlarini sinamoqchi bo‘lib, ularning Isodan yuz o‘girishi yoki Unga sodiq qolishini bilmoqchi edi. Xuddi shu singari, qadimda Xudo shaytonga Ayubni sinash uchun izn bergan edi (Ayub 1:6-2:10 ga qarang).

22:35 *Men sizlarni…yuborganimda…* — 10:1-12 ga qarang.

22:36 *…hamyon…to‘rva…qilich…* — xatarli safarga otlangan odam odatda o‘zi bilan hamyon, to‘rva va qilichni olardi. Bular ramziy ma’noda ishlatilgan bo‘lib, Isoning va shogirdlarining boshiga tushadigan sinovlar davrini bildiradi. Iso bu so‘zlarni ko‘chma ma’noda ishlatganini tushunmagan shogirdlar jang qilishga tayyorlangan edilar (shu bobning 38, 49-51–oyatlariga qarang).

22:37 Ishayo 53:12 ga qarang.

22:39 *Zaytun tog‘i* — 19:29 izohiga qarang.

22:40 *Vasvasaga tushib qolmaylik, deb ibodat qilinglar…* — Iso O‘z shogirdlarini hademay sinov payti boshlanishi haqida ogohlantiryapti (shu bobning 22-23, 31-36–oyatlariga, 31–oyatning ikkinchi izohiga va 36–oyatning izohiga qarang). O‘sha paytda ular vasvasaga tushib, Iso Masihdan yuz o‘girishlari mumkin edi.

22:42 *bu azob kosasi* — yunoncha matnda *bu kosa*, Isoning azoblari va xochdagi o‘limiga ishora (18:31-32 ga va shu bobning 14-22–oyatlariga qarang). “Kosadan ichmoq” iborasi azob–uqubat tortib, jazo olish ma’nosini bildiradi (misol uchun, Zabur 74:9, Ishayo 51:17, Yeremiyo 25:15 ga qarang).

22:43-44 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida shu bobning 43-44–oyatlari yo‘q.

22:47 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida quyidagi so‘zlar oyatga qo‘shimcha qilingan: *Chunki u: “Men kimni o‘psam, U O‘sha kishidir”, deb yonidagilariga aytib qo‘ygan edi*.

22:52 *Ma’bad mirshabboshilari* — shu bobning 4–oyati izohiga qarang.

22:54 *oliy ruhoniy* — 3:2 ga va o‘sha oyatning birinchi izohiga qarang.

22:59 *Axir, u ham Jalilalik–ku!* — buni Butrusning shevasidan payqab olishgan edi (Matto 26:73 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang).

22:66 *Oliy kengash* — yahudiylarning siyosiy va diniy kengashi. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi OLIY KENGASH iborasiga qarang.

22:68 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida quyidagi so‘zlar oyatga qo‘shimcha qilingan: *Meni ozod ham qilmaysizlar*.

22:69 *...Qodir Xudoning o‘ng tomonida o‘tiradi* — Zabur 109:1 ga qarang. O‘ng tomon muruvvat va baraka o‘rni deb hisoblangan.

22:70 *Xudoning O‘g‘li* — Iso Masihning unvoni. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi XUDONING O‘G‘LI iborasiga qarang.

23:1 *hokim Pilat* — 3:1 ga va o‘sha oyatning uchinchi izohiga qarang.

23:2 *Qaysar* — barcha Rim imperatorlariga berilgan unvon. Bu o‘rinda Qaysar Tiberiyga ishora qilingan (3:1 ga va o‘sha oyatning ikkinchi izohiga qarang).

23:5 *Yahudiya* — 6:17 izohiga qarang.

23:7 *Hirod* — 3:1 ga va o‘sha oyatning to‘rtinchi izohiga qarang.

23:16-17 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida quyidagi so‘zlar 17–oyatni tashkil etib, qo‘shimcha qilingan: *Odatga ko‘ra, har Fisih bayramida Pilat bir yahudiy mahbusni ozod qilar edi*. Yana Mark 15:6 ga qarang.

23:19 *isyon* — yuz bergan bu hodisa kitob yozilgan davrda yashagan odamlarga ma’lum bo‘lgan. Hozirgi davrda bu isyon haqida hech qanday ma’lumot yo‘q.

23:26 *Kirineya* — bu shahar O‘rta yer dengizi bo‘yida, hozirgi Liviya mamlakatining hududida joylashgan edi.

23:26 *xoch* — bu o‘rinda xochning ko‘ndalang yog‘ochiga ishora qilingan. O‘limga mahkum qilingan inson bu yog‘ochni hukm ijro qilinadigan joygacha o‘zi ko‘tarib borishi kerak edi. Bundan oldin Isoni ayovsiz qamchilashgani uchun (Matto 27:26, Mark 15:15, Yuhanno 19:1), U shu qadar holdan toygan ediki, ehtimol, xochni O‘zi ko‘tarishga madori qolmagan bo‘lsa kerak.

23:30 Xo‘sheya 10:8 ga qarang. Yana Vahiy 6:15-17 ga qarang.

23:34 *Iso...dedi* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida bu gap yo‘q.

23:34 *...qur’a tashlab, Isoning kiyimlarini bo‘lishib oldilar* — Zabur 21:19 ga qarang.

23:36 *arzon sharob* — bu o‘rinda ishlatilgan yunoncha so‘z avom xalq kunda ichadigan nordon sharobga ishora qiladi. Bu sharob Rim askarlari uchun o‘sha yerga olib kelingan bo‘lishi mumkin.

23:38 *Isoning bosh tomonida…yozuv bor edi* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *Isoning bosh tomonida yunon, lotin va oramiy tillarida…yozuv bor edi*.

23:42 *Iso* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *Rabbim Iso*.

23:44-45 *Tush payti…soat uch…* — yunoncha matnda *Oltinchi soat…to‘qqizinchi soat…*, yahudiylarning urf–odatiga ko‘ra, kunning bu paytlari o‘sha soatlar bilan belgilanar edi.

23:44-45 *Ma’baddagi parda* — shoh Hirod qayta qurgan Ma’badda ikkita parda bor edi. Pardaning biri Ma’badning kiraverishida osilgan, ikkinchisi esa Eng muqaddas xonani Muqaddas xonadan ajratib turar edi. Bu oyatda Eng muqaddas xonani Muqaddas xonadan ajratib turadigan parda nazarda tutilgan. Ma’baddagi pardaning yirtilishi Iso tufayli odamlarga Xudoning huzuriga yo‘l ochilganidan dalolat beradi (Yuhanno 4:19-24, Ibroniylar 9:1-10, 10:19-22 ga qarang).

23:46 *Ruhimni Sening qo‘llaringga topshiryapman* — Zabur 30:6 ga qarang.

23:51 *Arimateya shahri* — Quddusdan 35 kilometr shimoli–g‘arbda joylashgan.

23:54 *…Shabbat kuni boshlanishiga oz qolgandi* — yahudiylarning urf–odatiga ko‘ra, yangi kun quyosh botgandan keyin boshlanar edi. Juma kuni tugayotgani uchun, qoidaga ko‘ra, ayollar Shabbat kuni o‘tgandan keyingina jasadga xushbo‘y moylar surtib, uni mumiyolasa bo‘lar edi.

23:56 *…jasadga surtish uchun xushbo‘y moylar va atirlar tayyorladilar* — yahudiylarning urf–odatiga ko‘ra, jasad dafn qilinishdan oldin unga xushbo‘y hidli ziravorlar va moylar surtilar edi.

24:1 *tayyorlab qo‘ygan xushbo‘y moylari* — 23:56 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

24:1 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida quyidagi so‘zlar oyatga qo‘shimcha qilingan: *Ular bilan boshqa bir necha ayol ham bor edi*.

24:7 *U sizga…degan edi–ku* — 18:31-33 ga qarang.

24:10 *Magdala* — Jalila ko‘lining g‘arbiy qirg‘og‘idagi qishloq.

24:13 *o‘n chaqirim* — yunoncha matnda *oltmish stadion*, taxminan 11 kilometrga to‘g‘ri keladi. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *bir yuz oltmish stadion*, taxminan 30 kilometrga to‘g‘ri keladi.

24:17 *Ular to‘xtab qoldilar, yuzlari g‘amgin edi* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *Nega yuzlaringiz g‘amgin?*

24:27 *…Musodan tortib, barcha Payg‘ambarlar bitiklari…* — Eski Ahd kitoblari to‘plamiga ishora (shu bobning 44–oyati izohiga qarang).

24:34 *Butrus* — yunoncha matnda *Shimo‘n*, Butrusning yana bir ismi (6:14 ga qarang).

24:42 *bir bo‘lak qovurilgan baliq* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *bir bo‘lak qovurilgan baliq va bir oz mumli asal*.

24:44 *…Tavrot…Payg‘ambarlar bitiklari…Zabur…* — odatda yahudiylar, Eski Ahd to‘plami uch qismdan iborat, deb aytadilar. Bu uch qism quyidagilardir: Tavrot (Musoning qonuni degan nom bilan ham yuritiladi), Payg‘ambarlar bitiklari (uning tarkibiga ba’zi tarixiy kitoblar ham kirgan) va Bitiklar (Zabur bu qismning birinchi kitobidir). Yahudiylar ba’zan dastlabki ikki qism “Tavrot va Payg‘ambarlar bitiklari”

deganda butun Eski Ahd to‘plamini nazarda tutadilar (misol uchun, shu bobning 27–oyatiga qarang).

24:49 *Men sizlarga osmondagi Otam va’da qilgan Muqaddas Ruhni yuboraman* — 3:16, 11:13 ga va Havoriylar 2:1-21 ga qarang.

24:50 *Baytaniya* — Quddus shahrining sharqiy devori bo‘ylab o‘tgan Qidron soyligining narigi tomonida joylashgan qishloq.

24:53 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida quyidagi so‘z oyatga qo‘shimcha qilingan: *omin*.

YUHANNO

BAYON ETGAN MUQADDAS XUSHXABAR

Kirish

Mazkur kitob Yangi Ahd tarkibidagi to‘rtta Xushxabarning to‘rtinchisidir. Kitobning muallifi Zabadiyoning o‘g‘li baliqchi Yuhannodir. Yuhanno, Butrus va Yuhannoning akasi Yoqub Iso Masihning eng yaqin shogirdlari hisoblanadi. Yuhanno bu kitobda o‘z ismini ishlatmay, o‘zini Iso Masihning sevikli shogirdi deb tilga oladi (masalan, 13:23 ga qarang).

Mazkur kitob zamirida Iso Masihning shaxsiyati, ilohiy Kalom inson bo‘lib kelgani, Masihning O‘z samoviy Otasi — Xudo bilan bo‘lgan munosabati va Iso Masihga e’tiqod qilish kabi mavzular yotadi. Iso Masih odamlarga O‘zining kimligini tushuntirmoqchi bo‘lib, turli obrazlardan foydalanadi. U O‘zini “hayot noni”, “hayotbaxsh suv manbai”, “olamning nuri”, “yaxshi cho‘pon”, “yo‘l, haqiqat va hayot”, “haqiqiy tok” va “odamlarni oxiratda tiriltiruvchi, ularga hayot beruvchi Zot” deb ataydi.

Bu Xushxabar nima maqsadda yozilgani 20:31 da aytib o‘tilgan: “Toki sizlar Isoning Masih, Xudoning O‘g‘li* ekanligiga ishonib, bu imoningiz tufayli hayotga ega bo‘linglar.” Muallif Isoning ta’limotini qiziqarli mantiqiy mulohazalar orqali taqdim etadi, u nur va zulmat, imon va imonsizlik, sevgi va nafrat, osmon va bu dunyo borasida so‘z yuritadi.

Ushbu kitob azaldan mavjud bo‘lgan Kalom haqidagi ma’lumot bilan boshlanadi. Ilohiy Kalom dunyo yaratilishidan oldin mavjud bo‘lgan. Nimaiki yaratilgan bo‘lsa, o‘sha Kalom orqali vujudga kelgan. Xudoning Kalomi inson bo‘lib tug‘ildi, U Iso Masih edi. Iso Masih zulmatga g‘arq bo‘lgan bu dunyoga hayot nurini olib keldi. Masihga ishongan har bir kishi samoviy Otani tanib oladi va abadiy hayotdan bahramand bo‘ladi.

Kitobning birinchi qismidan (1-12–boblar) Isoning qilgan mo‘jizalari o‘rin olgan, muallif Isoni Xudoning O‘g‘li, Xudo va’da qilgan Najotkor ekanligini e’tirof etadi. Ko‘p odamlar Isoga ishonib, Unga ergashadilar. Ba’zilar esa Unga qarshi bo‘ladilar.

Kitobning 13-17–boblarida Isoning O‘z shogirdlariga qilgan g‘amxo‘rligiga, Ustoz va shogirdlari orasidagi munosabatga e’tibor beriladi. Iso xochdagi o‘limidan oldin, shogirdlarini ogohlantirib, yaqinlashayotgan fojiadan qo‘rqmasliklarini aytadi va ularga dalda beradi.

Isoning hibsga olinishi, kaltaklanishi, o‘ldirilishi va tirilishi haqidagi hodisalar kitobning so‘nggi qismidan o‘rin olgan (18-21–boblar). Iso tirilgandan keyin bir necha marta shogirdlariga zohir bo‘lgani haqidagi voqealar kitobga yakun yasaydi.

1–BOB

Kalom va Nur

1 Azalda Kalom* bor edi.
Kalom Xudo bilan birga edi,
Kalom Xudo edi.
2 Azalda U Xudo bilan birga edi.

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

3 Butun borliq Kalom orqali yaratilgan*,
Usiz yaratilgan biron narsa mavjud emas.

4 Kalom hayot manbai edi,
Bu hayot insonlarning Nuri edi.
5 Nur zulmatda porlaydi,
Axir, zulmat Nurni yengolmadi.

6 Xudo Yahyo ismli bir odamni yubordi. 7 Yahyo Nur haqida shahodat qilgani kelgan edi, toki hamma uning shahodati orqali imon keltirsin. 8 Yahyoning o‘zi Nur emas edi, u faqat Nur haqida shahodat qilgani kelgandi. 9 Har bir odamni yoritadigan haqiqiy Nur dunyoga kelayotgan edi*.

10 Ha, Kalom dunyoda edi,
Dunyo U orqali yaratilgandi,
Biroq dunyo Uni tanimadi.
11 U O‘z yurtiga keldi,
Lekin O‘z xalqi Uni qabul qilmadi.
12 Ammo Uni qabul qilganlarning hammasiga,
Unga imon keltirganlarga,
U Xudoning farzandi bo‘lish huquqini berdi.
13 Ular tana xohishidan emas,
Er xohishidan ham emas,
Tabiiy yo‘l bilan emas*,
Balki Xudodan tug‘ilgan farzandlardir.

14 Kalom inson bo‘ldi,
Oramizda yashadi*.
U inoyat va haqiqatga to‘lgandi.
Biz esa Uning ulug‘vorligini ko‘rdik.
Bu ulug‘vorlik Otadan* kelgan yagona O‘g‘ilga* mansub edi.

15 Yahyo U haqda guvohlik berib, baland ovozda dedi: “Mening ketimdan kelayotgan Zot mendan ulug‘dir, chunki U mendan oldin mavjud bo‘lgan, deb mana shu Kishi haqida aytgan edim.”

16 Uning cheksiz inoyati tufayli
Biz hammamiz baraka ustiga baraka oldik.
17 Xudo qonunni Muso orqali berdi,
Inoyat va haqiqatni esa
U Iso Masih orqali ko‘rsatdi.
18 Hech kim hech qachon Xudoni ko‘rgan emas,
Samoviy Otaning bag‘ridagi,
Aslida Xudo bo‘lgan yagona O‘g‘il*
Uni bizga tanitdi.

Yahyo choʻmdiruvchining guvohligi

19-20 Quddusdagi yahudiylar Yahyoning oldiga ruhoniylarni* va levilarni* yubordilar. Ular kelib, Yahyodan:

— Sen kimsan? — deb soʻradilar. Yahyo javob berishdan bosh tortmadi. U shahodat berib, ochiq–oydin:

— Men Masih* emasman, — deb aytdi. 21 Yana undan:

— Boʻlmasa kimsan? Ilyosmisan?* — deb soʻradilar.

— Yoʻq! — dedi u.

— Biz kutayotgan paygʻambarmisan?* — deb savol berdilar. U yana:

— Yoʻq! — deb javob berdi.

22 — Unda kimsan? Bizni yuborganlarga javob berishimiz kerak. Sen oʻzing haqingda nima deysan? — deb soʻradilar.

23 — Ishayo paygʻambar aytganiday*: “Egamizga toʻgʻri yoʻl oching”, deb choʻlda yangrayotgan ovoz menman, — dedi Yahyo.

24 Farziylar* tomonidan yuborilgan bu odamlar* 25 Yahyoga dedilar:

— Modomiki, sen Masih ham, Ilyos ham, biz kutgan paygʻambar ham emas ekansan, nega xalqni suvga choʻmdirib yuribsan?

26 Yahyo ularga javoban shunday dedi:

— Men odamlarni suvga choʻmdiryapman, xolos. Lekin orangizda sizlar tanimaydigan bir Zot bor. 27 U mening ortimdan kelyapti*, shunday boʻlsa–da, men Uning choriq iplarini yechishga ham arzimayman.

28 Bu hodisa Iordan daryosining sharqiy qirgʻogʻidagi Baytaniya* qishlogʻida yuz bergan edi. Yahyo oʻsha yerda odamlarni suvga choʻmdirib yurardi.

Iso — Xudoning qurbonlik Qoʻzisi

29 Ertasi kuni Yahyo Isoning yaqinlashib kelayotganini koʻrib, shunday dedi:

— Ana, Xudoning Qoʻzisi! U dunyoni gunohdan poklaydi! 30 Men ana shu Kishi haqida: “Mening ketimdan kelayotgan Zot mendan ulugʻdir, chunki U mendan oldin mavjud boʻlgan”, deb aytgan edim. 31 Men Uning kimligini bilmas edim. Lekin Uni Isroil xalqiga tanitish maqsadida, men odamlarni suvga choʻmdirgani keldim.

32 Yahyo yana shunday shahodat berdi:

— Men Ruhning osmondan kaptarday uchib kelganini va Uning ustiga qoʻnganini koʻrdim. 33 Oʻsha paytgacha men Uning kimligini bilmas edim. Lekin “Odamlarni suvga choʻmdirasan”, deb meni yuborgan Xudo menga shunday degan edi: “Muqaddas Ruh kimning ustiga tushib qoʻnganini koʻrsang, bilki, Muqaddas Ruhga Choʻmdiruvchi Oʻshadir.” 34 Men buni koʻrdim va sizlarga: “Bu Xudoning Oʻgʻlidir*”, deb aytyapman.

Isoning dastlabki shogirdlari

35 Ertasi kuni Yahyo shogirdlarining ikkitasi bilan yana kechagi joyda edi. 36 U oʻtib ketayotgan Isoga qarab:

— Ana, Xudoning Qoʻzisi! — dedi.

37 Ikkala shogird Yahyoning bu soʻzlarini eshitib, Isoning orqasidan ergashib borishdi. 38 Iso oʻgirilib, ularning ergashib kelayotganini koʻrdi–da, ulardan:

— Sizlarga biron narsa kerakmi? — deb soʻradi.

— Ravviy*, Siz qayerda turasiz? — deyishdi ular. (Ravviy “ustoz” demakdir.)

39 — Yuringlar, koʻrasizlar, — dedi Iso.

Ular borib, Isoning turar joyini koʻrganlarida, soat toʻrt* boʻlib qolgan edi. Shuning uchun ular oʻsha kuni Iso bilan qolishdi. 40 Yahyodan Iso haqida eshitib, Unga ergashganlardan biri Endrus edi. Endrus Shimoʻnning* ukasi edi. 41 U darrov akasi Shimoʻnni topdi–da, unga:

— Biz Masihni topdik, — dedi. (Masih “Xudoning tanlagani” demakdir.) 42 Endrus akasini Isoning oldiga olib keldi. Iso unga qarab:

— Sen Yuhanno* oʻgʻli Shimoʻnsan. Sening isming Kifas* boʻladi, — dedi.

(Kifas yunonchada Butrus, ya’ni “tosh” demakdir.)

43 Ertasi kuni Iso Jalila hududiga bormoqchi boʻldi. U Filipni uchratib, unga:

— Ortimdan yur! — dedi.

44 Filip Baytsayda shahridan boʻlib, Endrus va Butrusning hamshahari edi. 45 Filip Natanilni* topib, unga dedi:

— Muso Tavrot kitobida, boshqa paygʻambarlar ham oʻzlarining bitiklarida* bir Zot toʻgʻrisida yozishgan edi. Biz oʻsha Zotni topdik. U Nosira shahridan, Yusuf oʻgʻli Iso ekan!

46 — Nosira shahridan? U yerdan biron yaxshilik chiqarmidi?! — dedi Natanil unga.

— Yur, koʻrasan! — dedi unga Filip.

47 Iso yaqinlashib kelayotgan Natanilni koʻrib, u haqda shunday dedi:

— Ana Isroilning haqiqiy avlodi. U hiyla degan narsani bilmaydi*.

48 Natanil Isodan soʻradi:

— Siz meni qayerdan taniysiz?

— Filip seni chaqirmasdan oldin, sen anjir daraxtining tagida eding. Men seni oʻsha yerda koʻrgan edim, — deb javob berdi Iso. 49 Shunda Natanil dedi:

— Ustoz, Siz Xudoning Oʻgʻlisiz! Isroilning Shohisiz!

50 Iso unga javoban dedi:

— Men senga: “Seni anjir daraxti tagida koʻrdim” deganim uchungina ishonyapsan. Sen bundan ham buyuk ishlarni koʻrasan!

51 Soʻng yana shunday deb qoʻshib qoʻydi:

— Sizlarga chinini aytayin: sizlar osmon ochilganini va Xudoning farishtalari Inson Oʻgʻli* oldiga tushib–chiqayotganini koʻrasizlar*.

2–BOB

Isoning dastlabki moʻjizasi

1 Ikki kundan keyin Jaliladagi Ka’na qishlogʻida nikoh toʻyi boʻldi. Isoning onasi oʻsha yerda edi. 2 Iso bilan shogirdlari ham toʻyga taklif qilingan edilar.

3 Sharob tugay deb qolganda, onasi Isoga:

— Ularda sharob qolmabdi, — dedi.

4 — Buning Menga nima daxli bor?! Mening vaqt–soatim hali kelgani yoʻq, — dedi Iso. 5 Shunda onasi xizmatkorlarga:

— U sizlarga nima desa, shuni qilinglar, — dedi.

6 Oʻsha yerda yahudiylarning poklanish marosimlarida ishlatiladigan oltita tosh xum bor edi. Har bir xum ichiga oʻn–oʻn ikki chelak* suv sigʻardi.

7 Iso xizmatkorlarga:

— Xumlarni suvga toʻldiringlar, — dedi. Ular xumlarni limmo–lim qilib suvga

to‘ldirishdi. 8 Iso ularga:

— Endi xumdagi suvdan ozgina olib, to‘yboshiga olib boringlar, — dedi. Ular olib borishdi.

9 To‘yboshi sharobga aylangan suvni tatib ko‘rdi. Bu sharobning qayerdan kelganligini u bilmas edi, faqat olib kelgan xizmatkorlar bilishar edi. To‘yboshi kuyovni chaqirtirib, 10 unga dedi:

— Dasturxonga avval yaxshi sharob tortiladi. Mehmonlar ichib to‘yganlaridan keyin, yomonrog‘i tortiladi. Sen esa yaxshi sharobni shu paytgacha saqlab kelibsan!

11 Bu Isoning qilgan birinchi mo‘jizasi edi. Iso bu mo‘jizali alomatni Jaliladagi Ka’na qishlog‘ida namoyish etib, O‘zining ulug‘vorligini zohir qildi. Shogirdlari Unga ishondilar.

12 Shundan keyin Iso, onasi, ukalari va shogirdlari Kafarnahum shahriga bordilar va u yerda bir necha kun turdilar.

Iso savdogarlarni Ma’baddan quvadi

13 Yahudiylarning Fisih bayrami* yaqinlashib qolgani uchun Iso Quddus shahriga bordi. 14 Ma’bad hovlisiga kirganda, u yerda mol–qo‘y, kaptar sotayotganlarni va xontaxtalar yonida o‘tirgan sarroflarni* ko‘rdi. 15 Iso arqondan qamchi yasadi–da, Ma’baddan hammani mol–qo‘ylari bilan birga quvib chiqardi. Sarroflarning xontaxtalarini ag‘darib, pullarini sochib yubordi. 16 Kaptar sotuvchilarga:

— Bularni yo‘qotinglar bu yerdan! Otamning uyini bozor qilmanglar! — dedi.

17 Shunda Uning shogirdlari Muqaddas bitiklardagi: “Sening uyingga bo‘lgan sevgim ichimni yondirar”* degan so‘zlarni esladilar.

18 — Bunday qilishga nima haqing bor?! Bordi–yu, haqing bo‘lsa, bironta alomat ko‘rsatib, buni isbotla! — deb talab qila boshladi yahudiylar.

19 Iso shunday javob berdi:

— Mana bu Ma’badni buzinglar, Men uch kun ichida uni tiklayman.

20 Bunga javoban yahudiylar dedilar:

— Bu Ma’bad qirq olti yildan beri qurilyapti*, Sen esa uni uch kunda tiklamoqchimisan–a?!

21 Holbuki, Iso Ma’bad deb O‘zining badanini nazarda tutgan edi. 22 Iso o‘lib tirilgandan keyin, shogirdlari Uning bu gapini esladilar. Shunda Muqaddas bitiklarga va Isoning so‘zlariga ishondilar.

23 Iso Quddusda Fisih bayramida bo‘lganda, ko‘p odamlar Uning qilayotgan mo‘jizali alomatlarini ko‘rib, Unga imon keltirdilar. 24 Ammo Iso odamlarning qanaqaligini bilgani uchun O‘zini ularga ishonmas edi. 25 Inson haqida Unga biron gap aytishning hojati yo‘q edi. Chunki inson dilida nima borligini U bilar edi.

3–BOB

Iso va Nikodim

1 Yahudiy yo‘lboshchilaridan Nikodim ismli bir odam bor edi, u farziylar mazhabida edi. 2 Bu odam bir kuni kechasi Isoning oldiga kelib, Unga dedi:

— Ustoz, Siz Xudodan kelgan bir muallim ekanligingizni biz bilamiz. Agar Xudo Siz bilan bo‘lmaganda edi, Siz bunday mo‘jizali alomatlarni qila olmas edingiz.

3 Iso unga shunday javob berdi:

— Sizga chinini aytay: qaytadan* tug‘ilmagan bironta odam Xudoning Shohligini* ko‘rolmaydi.
4 — Keksa odam tug‘ila olarmidi?! U onasining qorniga qayta kirib, yana tug‘ila
olmaydi–ku! — dedi Nikodim. 5 Iso shunday javob berdi:
— Sizga chinini aytay: suvdan va Ruhdan tug‘ilmagan bironta odam Xudoning
Shohligiga kirolmaydi. 6 Odam jismonan ota–onadan tug‘iladi, ruhan esa Muqaddas
Ruhdan tug‘iladi. 7 “Sizlar qaytadan tug‘ilishingiz kerak” deganimga taajjublanmang.
8 Ruh xuddi shamolga o‘xshaydi. Shamol istagan joyda esaveradi. Uning tovushini
eshitasiz–u, lekin qaysi tomondan kelib, qaysi tomonga ketishini bilmaysiz. Ruhdan
tug‘ilgan har bir kishida ham shunday bo‘ladi.
9 — Bu qanday bo‘lishi mumkin? — deb so‘radi Nikodim. 10 Iso unga shunday javob
berdi:
— Siz Isroilning ustozisiz–ku! Nahotki shuni bilmasangiz?! 11 Sizga chinini aytay: biz
bilganimizni so‘zlaymiz, ko‘rganimiz haqida shahodat beramiz. Lekin sizlar bizning
shahodatimizni qabul qilmayapsizlar. 12 Agar sizlar yerdagi narsalar haqida
aytganlarimga ishonmasangizlar, samoviy narsalar to‘g‘risida gapirganlarimga qanday
ishonasizlar? 13 Osmondan tushgan* Inson O‘g‘lidan boshqa hech kim osmonga chiqqan
emas. 14 Muso sahroda bronza ilonni* xodaga mahkamlab, qanday yuqoriga ko‘targan
bo‘lsa, Inson O‘g‘li ham xuddi shunday yuqoriga ko‘tarilishi kerak*. 15 Shu tariqa imonga
kelgan har bir kishi U orqali abadiy hayotga ega bo‘ladi*.
16 Zero*, Xudo olamni shunchalik sevdiki, O‘zining yagona O‘g‘lini berdi. Toki Unga
ishonganlardan birontasi halok bo‘lmasin, balki abadiy hayotga ega bo‘lsin. 17 Xudo
dunyoni hukm qilish uchun emas, balki O‘g‘li orqali qutqarish uchun Uni dunyoga
yubordi. 18 Unga ishongan odam hukm qilinmaydi. Unga ishonmagan odam esa
allaqachon mahkum bo‘lgan, chunki u Xudoning yagona O‘g‘liga ishonmadi.
19 Hukm shunday dalilga asoslangan: dunyoga nur keldi, ammo odamlar nurdan
ko‘ra, zulmatni yaxshi ko‘rdilar, chunki ularning qilmishlari yovuz edi. 20 Qabihlik qilgan
odam nurdan nafratlanadi. Qilmishlari fosh bo‘lmasligi uchun u nurdan qochadi.
21 Haqiqat yo‘lini tutgan odam esa nurga keladi. Bunday odamning ishlari Xudo orqali
qilinganligini nur hammaga ayon qiladi.

Yahyo cho‘mdiruvchi Iso Masih haqida guvohlik beradi

22 Shundan keyin Iso shogirdlari bilan Yahudiya o‘lkasiga bordi. Iso ular bilan bir
qancha vaqt u yerda qolib, odamlarni suvga cho‘mdirdi. 23 Yahyo ham Saleym degan
joyning yaqinidagi Eynon yerida* xalqni suvga cho‘mdirardi. U yer nihoyatda sersuv edi.
Odamlar doim Yahyoning oldiga kelib, suvga cho‘mdirilardi. 24 Bu hodisalar Yahyo
zindonga tashlanishdan* oldin yuz bergan edi.
25 Shu mahal Yahyoning shogirdlari bilan bir yahudiy kishi orasida tahorat haqida
bahs bo‘ldi. 26 Ular Yahyoning oldiga borib dedilar:
— Ustoz! Iordan daryosining sharqiy qirg‘og‘ida yoningizdagi bir Odam haqida
guvohlik bergan edingiz–ku, o‘sha Odam xalqni suvga cho‘mdirib yuribdi, hamma Uning
oldiga boryapti.
27 Bunga javoban Yahyo dedi:
— Agar osmondan berilmasa, inson hech narsa qila olmaydi. 28 “Men Masih
emasman, faqat Uning oldidan yuborilganman”, deb aytgan so‘zlarimga o‘zlaringiz

guvohsizlar. 29 Kelin kuyovga tegishlidir. Kuyov jo‘ra esa kuyov yonida turib, uning ovozini eshitganidan sevinib xursand bo‘ladi. Xuddi shunday men ham bugun benihoyat shodman. 30 Masih yuksalishi, men esa pasayishim kerak.

31 Yuqoridan* kelgan Zot hammadan ustundir. Yerdan bo‘lgan odam yerga mansubdir va yerga xos masalalar to‘g‘risida gapiradi. Osmondan Kelgan esa hammadan ustundir. 32 U ko‘rgani va eshitgani haqida guvohlik beradi, ammo hech kim Uning guvohligini qabul qilmaydi. 33 Uning guvohligini qabul qilgan kishi esa Xudoning haqligini tasdiqlaydi. 34 Xudo yuborgan Zot Xudoning so‘zlarini gapiradi. Zero, Xudo O‘z Ruhini Unga cheksiz–o‘lchovsiz beradi. 35 Ota O‘g‘lini yaxshi ko‘radi, U hamma narsani O‘g‘lining qo‘liga topshirgan. 36 Xudoning O‘g‘liga* ishongan har bir odam abadiy hayotga ega bo‘ladi. O‘g‘ilni rad etgan odam esa hayot ko‘rmay, Xudoning g‘azabi ostida qoladi.

4–BOB

Iso va Samariyalik ayol

1-3 Iso Yahyodan ko‘ra, ko‘proq shogird orttirib, suvga cho‘mdiryapti degan xabar farziylarning qulog‘iga yetib bordi. Vaholanki, xalqni Isoning O‘zi emas, shogirdlari suvga cho‘mdirayotgan edilar. Bu xabar farziylarning qulog‘iga yetib borganini Iso eshitgach, Yahudiyani tark etib, yana Jalilaga yo‘l oldi. 4 Yo‘lda U Samariyadan o‘tishi kerak edi. 5 Shunday qilib, U Samariyaning Sixar degan shahriga keldi. Bu shahar Yoqub* o‘z o‘g‘li Yusufga bergan yerga yaqin edi. 6 Yoqubning qudug‘i ham o‘sha yerda edi.

Yo‘l yurib charchagan Iso quduqning yoniga o‘tirdi. Taxminan tush payti* edi. 7 Shu vaqt Samariyalik bir ayol suv olgani kelib qoldi. Iso unga:

— Menga ichgani suv ber, — dedi. 8 Isoning shogirdlari esa ovqat sotib olish uchun shaharga ketgan edilar.

9 Samariyalik ayol Unga shunday dedi:

— Siz yahudiy bo‘lsangiz, men esa Samariyalik ayol bo‘lsam, qanday qilib mendan suv so‘rashga jur’at etdingiz?!*

Nega desangiz, yahudiylar Samariyaliklar bilan aloqa qilmaydilar.

10 Iso ayolga dedi:

— Xudo senga qanday in’om bermoqchi ekanligini va sendan suv so‘ragan Odam kim ekanligini sen bilmaysan. Bilganingda edi, o‘zing Undan suv so‘ragan bo‘lar eding va U senga hayotbaxsh suvni bergan bo‘lardi.

11 — Taqsir! — dedi ayol, — Sizda suv oladigan hech narsangiz yo‘q–ku, quduq esa chuqur. Hayotbaxsh suvingizni qayerdan olasiz? 12 Bu quduqni bizga bobokalonimiz Yoqub bergan. Uning o‘zi ham, bolalari ham, chorvasi ham bu quduqdan suv ichgan. Nahotki Siz Yoqubdan ham ustun bo‘lsangiz?!

13 Iso ayolga shunday javob berdi:

— Bu suvdan kim ichsa, yana chanqab qoladi. 14 Lekin Men beradigan suvdan kim ichsa, abadiy chanqamaydi. Men beradigan suv o‘sha odamning vujudida buloqqa aylanib, to abad hayot sari jo‘shib oqadi.

15 — Taqsir, bu suvdan menga ham bering. Men ham hech qachon chanqamayin, suv olgani bu yerga kelavermayin, — dedi ayol.

16 — Borib, eringni bu yerga chaqirib kel, — dedi Iso.

17 — Mening erim yoʻq, — dedi ayol.
— Erim yoʻq, deb sen toʻgʻrisini aytding, — dedi Iso. 18 — Sening besh nafar ering boʻlgan, hozirgisi ham ering emas. Sen toʻgʻrisini aytding!
19 — Hazrat*, Siz paygʻambar ekaningizni koʻrib turibman, — dedi ayol. 20 — Ota–bobolarimiz Xudoga bu togʻda* sajda qilar edilar. Ammo sizlar — yahudiylar esa Xudoga sajda qilinadigan joy Quddusda, deysizlar.
21 Iso unga dedi:
— Ey ayol, Menga ishongin, shunday vaqt keladiki, oʻshanda osmondagi Otaga na bu togʻda, na Quddusda sajda qilasizlar. 22 Sizlar — Samariyaliklar kimga sajda qilayotganingizni bilmaysizlar*, biz esa kimga sajda qilayotganimizni bilamiz. Chunki najot yahudiylardan keladi. 23 Ammo shunday vaqtlar keladiki, haqiqiy sajda qiluvchilar Otaga Ruhda va haqiqatda sajda qiladilar. Bunday vaqt keldi ham! Ota shu yoʻsinda Oʻziga sajda qiluvchilarni izlaydi. 24 Xudo Ruhdir, Unga sajda qiluvchilar ham Muqaddas Ruh boshchiligida, haqiqatni bilgan holda sajda qilishlari lozim.
Аёл Исога:
— Мен Масиҳ келишини биламан. У келганда, ҳамма нарсани бизга тушунтиради, — деди. (Масиҳ “Худонинг танлагани” демакдир.)
25 Ayol Isoga:
— Men Masih kelishini bilaman. U kelganda, hamma narsani bizga tushuntiradi, — dedi. (Masih “Xudoning tanlagani” demakdir.)
26 Iso ayolga dedi:
— Oʻsha Menman. Sen bilan gaplashib turibman.
27 Shu paytda Isoning shogirdlari kelib qolishdi. Uning bir ayol bilan gaplashayotganini koʻrib hayron boʻlishdi. Lekin birortasi ham: “Nima xohlaysiz?” yoki: “Nimaga bu ayol bilan gaplashyapsiz?” deb soʻramadi.
28 Ayol koʻzasini oʻsha yerda qoldirdi–da, shaharga borib, odamlarga dedi:
29 — Yuringlar, bir Odamni koʻringlar. U mening qilgan hamma ishlarimni aytib berdi! Oʻsha Masih emasmikin?
30 Odamlar shahardan chiqib, Isoning oldiga bordilar.
31 Shu orada shogirdlari Isoga:
— Ustoz, ovqat yeb oling, — deb taklif qildilar. 32 Ammo Iso ularga dedi:
— Mening yeydigan ovqatim bor, sizlar bu ovqat toʻgʻrisida bilmaysizlar.
33 Shogirdlari oʻzaro gaplashib: “Biron kishi Unga ovqat keltirganmikin?” deb aytishardi. 34 Iso ularga dedi:
— Mening ovqatim — Meni Yuborganning irodasini ado etish, Uning ishini tugatishdir. 35 Sizlar: “Ekinlar toʻrt oyda yetiladi” degan iborani ishlatasizlar. Men esa sizlarga aytaman: koʻzlaringizni ochinglar! Ekinzorlarga qaranglar! Hosil yetilgan, oʻrim–yigʻimga tayyor boʻlgan. 36 Oʻroqchi hozirdan yaxshi daromad olmoqda, abadiy hayot uchun hosil yigʻmoqda. Toki hosilni ekkan va oʻrgan birga quvonishsin. 37 “Biri ekadi, boshqasi oʻradi” degan maqol shu vaziyatga toʻgʻri keladi. 38 Men sizlarni oʻzingiz mehnat qilib ekmagan hosilni oʻrgani yubordim. Boshqalar mehnat qilgan edilar, sizlar esa ularning mehnatidan foydalanasizlar.
39 Shundan keyin oʻsha shaharda yashovchi talay Samariyaliklar Isoga imon keltirishdi. Ular haligi ayolning “U mening qilgan hamma ishlarimni aytib berdi” degan guvohligiga ishongan edilar. 40 Shunday qilib, Samariyaliklar Isoning oldiga kelib: “Biz

bilan qoling”, deb Isoga yolvorishdi. Iso ikki kun o‘sha yerda qoldi. 41 Isoning aytgan
so‘zlari tufayli ko‘p odamlar imon keltirdi. 42 Shunda ular ayolga dedilar:
— Endi sening so‘zlaring tufayligina ishonayotganimiz yo‘q. Uni o‘zimiz ham
eshitdik. U haqiqatan ham olamning Najotkori ekanligiga amin bo‘ldik*.

Iso amaldorning o‘g‘lini sog‘aytiradi

43 Ikki kundan keyin Iso u yerdan Jalila hududiga jo‘nab ketdi. 44 U: “Payg‘ambar o‘z
yurtida e’tibor topmaydi”, deb ta’kidlagandi. 45 Jalilaga kelganda esa, aholi Uni ochiq
chehra bilan kutib oldi. Chunki ular Fisih bayrami uchun Quddusga borganlarida, u
yerda Isoning qilgan hamma ishlarini ko‘rgan edilar.
46 Shunday qilib, Iso yana Jaliladagi Ka’na qishlog‘iga keldi. Bu yerda U suvni
sharobga aylantirgan edi. O‘sha paytda Kafarnahum shahrida bir saroy amaldorining*
o‘g‘li kasal bo‘lib yotgan edi. 47 Bu odam Isoning Yahudiyadan Jalilaga kelganligini
eshitib, Uning oldiga bordi. Isoga:
— Yuring, o‘lim to‘shagida yotgan o‘g‘limga shifo bering, — deb yolvordi.
48 — Sizlar alomatu mo‘jizalar ko‘rmaguncha ishonmaysizlar! — dedi unga Iso.
49 — Yura qoling Hazrat, o‘g‘ilginam o‘lib qolmasin! — dedi saroy amaldori Unga.
50 — Siz boravering. O‘g‘lingiz sog‘–salomat, — dedi Iso.
U odam Isoning aytganiga ishonib, jo‘nab ketdi. 51 U hamon yo‘lda ekan,
xizmatkorlari unga peshvoz chiqib:
— O‘g‘lingiz sog‘–salomat, — degan xabar keltirdilar.
52 — Qaysi soatda ahvoli yengillashdi? — deya so‘radi u.
— Kecha tushda, soat birlarda* isitmasi tushdi, — deyishdi xizmatkorlar.
53 “O‘g‘lingiz sog‘–salomat” degan so‘zlarni Iso aynan o‘sha vaqtda aytganini bolaning
otasi angladi. Shunda o‘zi va butun xonadoni Isoga imon keltirdi.
54 Bu esa Isoning Yahudiyadan Jalilaga kelib ko‘rsatgan ikkinchi mo‘jizali alomati edi.

5–BOB

Iso sholni sog‘aytiradi

1 Bu hodisalardan keyin Iso yahudiylarning bayramini nishonlash uchun Quddusga
bordi. 2 Quddusning Qo‘y darvozasi yonida bir hovuz bor edi. Bu hovuzning oramiycha*
nomi Baytzada* bo‘lib, beshta ayvoni bor edi. 3-4 Bu ayvonlarda ko‘r, cho‘loq va shol
bo‘lgan ko‘p nogironlar yotar edi*. 5 Bu yerda o‘ttiz sakkiz yildan beri nogiron bo‘lib
yotgan bir kishi bor edi. 6 Iso uning yotganini ko‘rdi, u uzoq vaqtdan beri xasta ekanligini
Iso bilardi. Shuning uchun undan:
— Sog‘ayishni istaysanmi? — deb so‘radi. 7 Nogiron odam Isoga shunday javob
berdi:
— Taqsir, suv qimirlaganda meni hovuzga tushiradigan odam yo‘q. Men
borgunimcha, boshqasi mendan oldin tushib oladi.
8 Iso unga shunday dedi:
— O‘rningdan tur! To‘shagingni olib, yur!
9 O‘sha odam shu zahoti sog‘ayib ketdi. To‘shagini olib, yura boshladi.
Bu hodisa Shabbat kuni sodir bo‘ldi. 10 Shuning uchun yahudiylar sog‘ayib ketgan
odamga deyishdi:
— Bugun Shabbat kuni! Shu kuni to‘shakni ko‘tarib yurish qonunda man etilgan!*

11 U odam esa shunday javob berdi:
— Meni sog‘aytirgan Kishi menga: “To‘shagingni olib, yur”, deb aytdi.
12 — “To‘shagingni olib, yur”, deb aytgan Odam kim? — deb so‘radilar. 13 Shifo topgan odam esa Uning kimligini bilmas edi, u yerda xalq ko‘pligidan Iso O‘zini chetga olgan edi.
14 Keyinroq Iso u odamni Ma’badda uchratib qolib, unga dedi:
— Mana, sen sog‘ayding. Endi gunoh qilma, tag‘in boshingga bundan battar kunlar kelmasin.
15 Bu odam borib, uni sog‘aytirgan Iso ekanligini yahudiylarga aytdi. 16 Ular esa, Isoni Shabbat kunida bunday ishlar qilib yurgani uchun quvg‘in qila boshladilar*. 17 Ammo Iso ularga shunday dedi:
— Mening Otam shu kungacha O‘z ishini qilib kelyapti, Men ham O‘z ishimni qilyapman.
18 Ana shu so‘zi uchun yahudiylar Isoni o‘ldirishga yanada ko‘proq harakat qilishdi. Chunki U nafaqat Shabbat qoidalarini buzdi, balki Xudoni Otam deb, O‘zini Xudoga tenglashtirgan edi.

O‘g‘ilning hokimiyati

19 Iso yahudiylarga shunday dedi: “Sizlarga chinini aytay: O‘g‘il O‘zidan–O‘zi hech narsa qila olmaydi. Faqat Otasidan ko‘rgan ishlarni qiladi. Osmondagi Ota nimalarni qilsa, O‘g‘il ham xuddi shularni qiladi. 20 Axir, Ota O‘g‘lini yaxshi ko‘radi, O‘zi qilgan hamma ishlarni O‘g‘liga ko‘rsatadi. U O‘g‘liga bundan ham buyukroq ishlarni ko‘rsatadi, shunda hammangiz hayron qolasizlar. 21 Ota o‘liklarni tiriltirib, ularga hayot baxshida etganday, O‘g‘il ham istagan odamiga hayot baxsh etadi. 22 Shuningdek, Ota hech kimni hukm qilmaydi, balki hukm qilish huquqini O‘g‘liga bergan, 23 toki hamma osmondagi Otani hurmat qilganday, O‘g‘lini ham hurmat qilsinlar. Kim O‘g‘ilni hurmat qilmasa, Uni yuborgan Otani ham hurmat qilmagan bo‘ladi.
24 Sizlarga chinini aytay: Mening so‘zlarimni tinglagan va Meni Yuborganga ishongan kishi abadiy hayotga egadir. U hukm qilinmaydi. Zotan, u o‘limdan hayotga o‘tgan.
25 Sizlarga chinini aytay: o‘liklar Xudo O‘g‘lining* ovozini eshitadigan vaqt keladi, kelib qoldi ham. O‘g‘ilning ovoziga quloq solganlar tiriladi. 26 Zero, Otaning O‘zi hayot manbai bo‘lgani kabi, O‘g‘liga ham hayot manbai bo‘lish qudratini ato qildi. 27 Bundan tashqari, samoviy Ota insonlarni hukm qilish hokimiyatini O‘g‘liga berdi, chunki U Inson O‘g‘lidir.
28 Bunga hayron qolmanglar! Qabrda yotgan marhumlarning hammasi Inson O‘g‘lining ovozini eshitadigan vaqt keladi. 29 Shunda o‘liklar qabrlaridan chiqadilar: yaxshilik qilganlar yashash uchun tiriladi, yomonlik qilganlar esa mahkum bo‘lish uchun tiriladi.

Iso haqida Xudoning bergan guvohligi

30 Men O‘zimdan O‘zim hech narsa qilolmayman. Osmondagi Otam Menga qanday aytsa, shunday hukm qilaman, shuning uchun hukmim to‘g‘ridir. Zotan, Men O‘z irodamni emas, balki Meni yuborgan Otamning irodasini bajo keltirishni istayman.
31 Agar Men O‘zim haqimda O‘zim guvohlik bersam, Mening guvohligim haqiqiy bo‘lmaydi. 32 Ammo Men haqimda guvohlik beruvchi boshqasi bor. Uning bergan guvohligi haqiqat ekanligini bilaman.
33 Sizlar Yahyoning oldiga odam yubordingizlar, u haqiqat to‘g‘risida guvohlik berdi.
34 Garchi Men insonning guvohligiga muhtoj bo‘lmasam–da, lekin bularni sizlar najot

topishingiz uchun aytyapman. 35 Yahyo go‘yo yonib turib, nur sochgan bir chiroqday edi. Sizlar esa uning nurida birpas quvonmoqchi bo‘ldingizlar. 36 Biroq Men Yahyodan ko‘ra, kattaroq guvohlikka egaman. Guvohlik deb, Men tugatishim uchun osmondagi Otam bergan ishlarni nazarda tutyapman. Bularning hammasi Meni Otam yuborganidan dalolat beradi.

37 Meni yuborgan Otamning O‘zi ham Men haqimda guvohlik berib turibdi. Sizlar esa hech qachon Uning ovozini eshitmagansiz, qiyofasini ham ko‘rmagansiz. 38 Uning kalomi ham ko‘nglingizdan joy olmadi, chunki sizlar U yuborgan Zotga ishonmayapsizlar. 39 Sizlar Muqaddas bitiklarni* tekshirasizlar, chunki ular orqali abadiy hayotga ega bo‘lamiz, deb o‘ylaysizlar. Ammo o‘sha Yozuvlar Men to‘g‘rimda guvohlik beradi–ku! 40 Sizlar esa hayotga ega bo‘lish uchun oldimga kelishni istamaysizlar.

41 Men insonlardan tahsin kutmayman. 42 Lekin sizlarni bilaman, qalbingizda Xudoning sevgisi yo‘q. 43 Men Otamning nomidan keldim, ammo sizlar Meni qabul qilmayapsizlar. Agar kimdir o‘z nomidan kelsa, uni qabul qilaverasizlar. 44 Sizlar bir–biringizdan tahsinlar olishni yaxshi ko‘rasizlar, lekin yagona Xudoning tahsiniga sazovor bo‘lishga harakat qilmaysizlar. Qanday qilib ham Menga ishona olardingiz?! 45 Men sizlarni Ota oldida ayblayman, deb o‘ylamanglar. Sizlar Musoga umid bog‘lagansizlar. Musoning o‘zi sizlarni ayblaydi. 46 Agar Musoga ishonganingizda edi, Menga ham ishongan bo‘lar edingizlar. Axir, u Men haqimda yozgan edi. 47 Musoning yozuvlariga ishonmagan bo‘lsangiz, Mening so‘zlarimga qanday ishonasizlar?!”

6–BOB

Iso 5000 kishini to‘ydiradi

1 Shundan keyin Iso qayiqda Jalila ko‘lining narigi qirg‘og‘iga* suzib o‘tdi (Jalila ko‘lini Tiberiyas ko‘li deb ham atashardi). 2 Bir talay xaloyiq Isoning orqasidan ergashib borardi. Chunki Iso mo‘jizali alomatlar orqali xastalarni sog‘aytirganini ular ko‘rgan edilar. 3 U shogirdlari bilan toqqa chiqib o‘tirdi. 4 Yahudiylarning Fisih bayrami yaqinlashayotgan edi.

5 Iso qarasa, bir talay xaloyiq U tomonga kelayotgan ekan. Iso Filipdan:

— Bu odamlarni to‘yg‘azish uchun qayerdan non sotib olamiz? — deb so‘radi. 6 Iso bu gapni Filipni sinab ko‘rish uchun aytayotgan edi, aslida nima qilishni O‘zi bilar edi.

7 Filip shunday javob berdi:

— Bularning har biriga bir burda non berish uchun ikki yuz kumush tangaga* non sotib olsak ham yetmaydi!

8 Shunda shogirdlaridan biri, Butrusning* ukasi Endrus Isoga dedi:

9 — Bu yerdagi bir bolada beshta arpa non bilan ikkita baliq bor ekan. Lekin shuncha odamga bu nima ham bo‘lar edi?!

10 — Odamlarni yerga o‘tqazinglar, — dedi Iso.

U yer qalin maysazor edi. Odamlarning hammasi yerga o‘tirishdi. Olomon orasida taxminan besh mingga yaqin erkak bor edi. 11 Iso nonlarni olib, shukrona duosini o‘qidi. So‘ng o‘tirganlarning hammasiga tarqatdi*. Baliqlarni ham xuddi shunday qildi. Odamlar istaganlaricha yedilar.

12 Hammalari yeb to‘yganlaridan keyin, Iso shogirdlariga shunday dedi:

— Ortib qolgan non burdalarini yig‘ib olinglar, isrof bo‘lmasin.

13 Shogirdlar yeyilgan beshta arpa nondan ortib qolgan burdalarni yig‘ib olishdi, o‘n
ikkita savat to‘ldi. 14 Shunda odamlar Isoning qilgan mo‘jizali alomatini ko‘rib:
— Haqiqatan ham dunyoga kelishi kerak bo‘lgan payg‘ambar* mana shu Kishi ekan,
— dedilar. 15 Ular Isoni zo‘rlik bilan shoh qilib ko‘tarmoqchi bo‘ldilar. Buni bilgan Iso
yolg‘iz O‘zi toqqa chiqib ketdi.

Iso suv ustida yuradi

16 Kechki payt Isoning shogirdlari ko‘l bo‘yiga bordilar. 17 Qorong‘i tushgan, Iso esa
hali ham ularning oldiga kelmagan edi. Shogirdlar qayiqqa tushib, ko‘lning narigi
tomonidagi* Kafarnahumga qarab yo‘l oldilar. 18 Kuchli shamol esib, ko‘l to‘lqinlanib
ketayotgan edi. 19 Ular qirg‘oqdan besh chaqirimcha* masofani suzganlaridan keyin, ko‘l
yuzida yurib kelayotgan Isoni ko‘rishdi. U qayiqqa yaqinlashayotgan edi, shogirdlar
qattiq vahimaga tushishdi.
20 — Qo‘rqmanglar, bu Menman! — dedi ularga Iso.
21 Ular Isoni qayiqqa olmoqchi bo‘ldilar. O‘sha zahoti qayiq ular borayotgan
qirg‘oqqa yetib to‘xtadi.

Iso — hayot noni

22 Ertasi kuni xalq Isoni qidira boshladi. Odamlar u yerda faqat bir qayiq borligini va
shogirdlar Isoni qoldirib, o‘zlari qayiqda suzib ketganlarini bilishardi. 23 Shu payt
Tiberiyasdan* boshqa qayiqlar kelib qoldi. Qayiqlar to‘xtagan joy Rabbimiz Iso O‘z
shukrona duosini o‘qigan va xalq non yegan yerga yaqin edi. 24 Odamlar Iso bilan
shogirdlarining u yerda yo‘qligini ko‘rgach, qayiqlarga tushib, Isoni qidirib
Kafarnahumga suzib kelishdi. 25 Ular Isoni ko‘lning narigi bo‘yidan* topib, Undan
so‘rashdi:
— Ustoz, Siz qachon bu yerga keldingiz?
26 Iso ularga shunday javob berdi:
— Sizlarga chinini aytayin: sizlar mo‘jizali alomatlarni ko‘rganingiz uchun emas,
balki non yeb to‘yganingiz uchun Meni qidiryapsizlar. 27 Siz o‘tkinchi ozuqa uchun emas,
abadiy hayotga boshlovchi boqiy ozuqa uchun harakat qilinglar. Bunday ozuqani
sizlarga Inson O‘g‘li beradi. Zotan, Otamiz Xudoning O‘zi bu vazifa uchun Uni ma’qul deb
topdi.
28 Odamlar Isoga shunday savol berishdi:
— Xudoga ma’qul ishlarni bajarish uchun nima qilishimiz kerak?
29 Iso dedi:
— Xudoga ma’qul ish qilmoqchi bo‘lsangizlar, Xudo yuborgan Zotga ishoninglar.
30 Ular Isoga javoban shunday dedilar:
— Sizga ishonishimiz uchun birorta alomat ko‘rsating. Qani, biz uchun nima ish
qilasiz? 31 Axir, ota–bobolarimiz sahroda manna* yeganlar. Muqaddas bitiklarda: “Xudo
ularga yesin deb, osmondan non berdi”*, deb yozilgan–ku.
32 Iso ularga dedi:
— Sizlarga chinini aytayin, sizlarga osmondan non bergan Muso emas. Osmondan
tushgan haqiqiy nonni sizlarga Mening Otam beradi. 33 Otam Xudo beradigan non
osmondan tushib, dunyoga hayot baxsh etadi.
34 Odamlar Isoga shunday dedilar:
— Hazrat, bunday nonni bizga doim berib turing!

35 Iso javoban dedi:
— Men hayot noniman. Mening oldimga kelgan odam sira och qolmaydi, Menga
ishongan odam hech qachon chanqamaydi. 36 Ammo Men sizlarga aytganimday, sizlar
Meni koʻrgan boʻlsangizlar ham, ishonmayapsizlar. 37 Samoviy Otam Menga bergan har
bir odam Mening oldimga keladi. Oldimga kelgan bironta odamni Men aslo haydab
yubormayman. 38 Men Oʻz irodamni emas, balki Meni yuborgan Otamning irodasini ado
etish uchun osmondan tushganman. 39 Otamning irodasi shundan iboratki, U Menga
berganlardan birontasining ham yoʻqolishiga Men yoʻl qoʻymasligim kerak, balki
oxiratda ularning hammasini tiriltirishim kerak. 40 Ha, Oʻgʻilga koʻz tikkan va Unga
ishongan har bir odam abadiy hayotga ega boʻlishi Otamning irodasidir. Men bunday
odamlarni oxiratda tiriltiraman.
41 Iso: “Men osmondan tushgan nonman” degani uchun yahudiylar Undan norozi
boʻla boshlashdi. 42 Ular oʻzaro shunday deb aytishardi:
— Bu Yusufning oʻgʻli Iso–ku! Ota–onasini taniymiz, qanday qilib: “Men osmondan
tushdim”, deb aytishga haddi sigʻdi?!
43 — Bunday gaplaringizni bas qilinglar! — dedi ularga Iso. 44 — Agar Meni yuborgan
Ota birovni jalb qilmasa, u Menga kelolmaydi. Oldimga kelgan odamni esa Men oxiratda
tiriltiraman. 45 Paygʻambarlar bitiklarida: “Ularning hammasiga Xudo ta’lim beradi”*,
deb yozilgan. Otaga quloq solgan, Undan oʻrgangan har bir odam Mening oldimga keladi.
46 Aslida hech kim hech qachon samoviy Otani koʻrgan emas, birgina Xudodan boʻlgan
Zot Otani koʻrgan. 47 Sizlarga chinini aytaman: kim Menga ishonsa, abadiy hayotga ega
boʻladi. 48 Men hayot noniman. 49 Ota–bobolaringiz sahroda manna yegandilar, shunga
qaramay oʻlib ketdilar. 50 Ammo osmondan tushadigan bu non esa shunday xislatga
egaki, undan yegan odam oʻlmaydi. 51 Men osmondan tushgan hayotbaxsh nondirman.
Bu nonni yegan kishi abadiy yashaydi. Dunyoga hayot baxshida etish uchun beradigan
nonim Mening tanamdir.
52 Shunda yahudiylar:
— U qanday qilib bizga Oʻzining tanasini yedira olar ekan? — deb oʻzaro talashib–
tortisha boshladilar. 53 Iso ularga dedi:
— Sizlarga chinini aytaman: agar Inson Oʻgʻlining tanasini yemasangizlar va Uning
qonini ichmasangizlar, sizda hayot boʻlmaydi. 54 Mening tanamni yegan va qonimni
ichgan odam esa abadiy hayotga egadir. Men uni oxiratda tiriltiraman. 55 Mening tanam
— haqiqiy ozuqa, qonim haqiqiy ichimlikdir. 56 Tanamni yeb, qonimni ichadigan odam
Menda, Men esa unda yashayman. 57 Modomiki, Meni barhayot Ota yuborgan ekan, Men
Ota tufayli yashayman. Mening tanamni yegan har bir odam esa Men tufayli yashaydi.
58 Osmondan tushgan non mana shudir. Bu non ota–bobolaringiz yegan mannaga
oʻxshamaydi, ular manna yeb oʻlib ketganlar. Men bergan nonni yegan odam esa abadiy
yashaydi.

Abadiy hayot baxsh etuvchi soʻzlar

59 Iso bu soʻzlarni Kafarnahumdagi sinagogada ta’lim berayotganda aytgan edi.
60 Uning koʻplab shogirdlari bu gaplarni eshitib:
— Qanchalik qattiq soʻzlar! Bularni kim hazm qila oladi?! — deyishar edi.
61 Shogirdlari norozi boʻlganlarini Iso bilardi, shuning uchun U shunday dedi:
— Gaplarim jigʻingizga tegyaptimi? 62 Agar sizlar Inson Oʻgʻlining asli kelgan joyiga

— osmonga koʻtarilib ketayotganini koʻrsangizlar, nima der ekansizlar–a?! 63 Xudoning
Ruhi hayot baxsh etadi, insonning kuchi bilan esa hech narsaga erishib boʻlmaydi.
Sizlarga aytgan bu soʻzlarimni Menga Xudoning Ruhi bergan, bu soʻzlarim sizlarga hayot
ato qiladi. 64 Shunga qaramay, orangizda Menga ishonmaganlar bor.
Holbuki, Iso kimlar ishonmaganini va kim Unga xiyonat qilishini oldindan bilar edi.
65 Iso gapida davom etdi:
— Shu sababdan Men sizlarga: “Osmondagi Otam yoʻl qoʻymasa, hech kim Mening
oldimga kelolmaydi”, — degan edim.
66 Oʻsha vaqtdan boshlab koʻp shogirdlar Isodan yuz oʻgirib, Unga ergashmaydigan
boʻldilar. 67 Shunda Iso oʻn ikki shogirdidan:
— Sizlar ham ketmoqchimisizlar? — deb soʻradi.
68 Butrus shunday javob berdi:
— Hazrat, biz Sizdan boshqa kimga ham borar edik?! Abadiy hayot baxsh etuvchi
soʻzlar Sizda–ku! 69 Siz Xudoning Azizi* ekaningizga ishonchimiz komil.
70 Iso ularga dedi:
— Men oʻn ikkitangizni tanlab oldim. Lekin orangizdagi bittangiz iblisdir!
71 U Shimoʻn oʻgʻli Yahudo Ishqariyotni nazarda tutgan edi. Yahudo oʻn ikki
shogirddan biri boʻlsa ham, keyinchalik Isoga xiyonat qildi.

7–BOB

Iso va ukalari

1 Shundan keyin Iso Jalila hududini keza boshladi. U Yahudiyani kezishni
xohlamagan edi, chunki u yerdagi yahudiylar Uni oʻldirishga qasd qilgan edilar.
2 Yahudiylarning Chayla bayrami* yaqinlashayotgan edi. 3 Ukalari Isoga shunday
deyishdi:
— Bu yerdan chiqib Yahudiyaga boring. Qilayotgan ishlaringizni shogirdlaringiz ham
koʻrishsin. 4 El nazariga tushaman degan bironta odam yashirincha ish qilmaydi–ku!
Bunday ishlarni qilar ekansiz, Oʻzingizni dunyoga taniting!
5 Hatto ukalari ham Unga ishonmas edilar. 6 Iso ukalariga shunday dedi:
— Mening vaqt–soatim hali kelgani yoʻq. Lekin sizlar uchun har vaqt qulaydir.
7 Dunyo sizlardan nafratlana olmaydi, lekin Mendan nafratlanadi. Chunki Men uning
qilmishlari yomon ekanligini yuziga solaman. 8 Mayli, sizlar bayramga boringlar. Men
hozircha bu bayramga bormayman, chunki Mening vaqtim hali kelgani yoʻq.
9 Shu soʻzlarni aytib, Iso Jalilada qoldi.

Iso Quddusda Chayla bayramida

10 Isoning ukalari bayramga ketganlaridan keyin, Isoning Oʻzi ham hech kimga
bildirmay, yashirincha bayramga bordi. 11 Yahudiylar esa Isoni bayramda qidirar, “U
qayoqda?” deb soʻrar edilar. 12 Omma orasida Iso toʻgʻrisida har xil gap–soʻzlar yoyilgan
edi. Ba’zilar: “U yaxshi odam”, desalar, boshqalar: “Yoʻq, U xalqni yoʻldan ozdiryapti”,
deyishardi. 13 Biroq yahudiylardan qoʻrqqanlari uchun U haqda hech kim ochiq
gapirmas edi.
14 Bayramning yarmi oʻtganda, Iso Ma’badga kirib, ta’lim bera boshladi. 15 Uni
eshitgan yahudiylar hayron qolib deyishdi:
— Bu Odam oʻqimagan boʻlsa, qayerdan shuncha narsani biladi?!

16 Iso ularga javoban dedi:
— Men oʻrgatayotgan taʼlimot Oʻzimniki emas, balki Meni Yuborgannikidir. 17 Kim Xudoning irodasini bajarishni istasa, bu taʼlimot Xudodanmi yoki Oʻzimdanmi, bilib oladi. 18 Kim oʻz nomidan gapirsa, oʻziga shuhrat izlaydi. Kim uni yuborganga shuhrat izlasa, haqiqatni soʻzlaydi, uning dilida hiyla boʻlmaydi. 19 Qonunni sizlarga Muso berdi, shunday emasmi? Ammo birortangiz qonunni bajarmaysiz. Nega Meni oʻldirmoqchisizlar?
20 — Seni jin uribdi! Kim Seni oʻldirmoqchi ekan? — dedi xaloyiq. 21 Iso esa Oʻz soʻzida davom etdi:
— Men Shabbat kuni bitta moʻjiza qilganim* uchun hammalaringiz hayron qolyapsizlar. 22 Oʻzlaringiz esa, Musoning qonuniga amal qilaylik deb, Shabbat kuni oʻgʻil bolani sunnat qilasizlar–ku! Aslida, sunnat odati* Musodan emas, Ibrohim davridan qolgan. 23 Musoning qonuni buzilmasin deb, sizlar hatto Shabbat kuni ham oʻgʻil bolani sunnat qilsangizlar, nega Mendan gʻazablanasizlar?! Shabbat kuni odamni butunlay sogʻaytirganim uchunmi?! 24 Yuzaki hukm qilmanglar, hukmingiz adolatli boʻlsin.

Isoning kimligi haqida gumonlar

25 Baʼzi Quddusliklar shunday deyishardi:
— Yoʻlboshchilarimiz oʻldirmoqchi boʻlgan Odam shu emasmi? 26 Mana, U hammaning oldida soʻzlayapti, Unga qarshi hech kim hech narsa demayapti. Nahotki yoʻlboshchilarimiz Uni Masih deb tan olishgan boʻlsa?! 27 Ammo bu Odamning qayerdanligini hammamiz bilamiz, Masih kelganda esa, Uning qayerdanligini hech kim bilmaydi.
28 Iso Maʼbadda taʼlim berar ekan, baland ovozda shunday dedi:
— Ha, sizlar Mening kimligimni ham, qayerdanligimni ham bilasizlar. Lekin Men Oʻzimcha kelganim yoʻq. Meni Yuborgan bor, sizlar esa Uni tanimaysizlar. U haqdir. 29 Men Uni bilaman, chunki Men Uning oldidan kelganman, U Meni yuborgan.
30 Bu gapi uchun Isoni qoʻlga olmoqchi boʻldilar. Biroq hech kim Unga qoʻl tekkizmadi, chunki Uning vaqt–soati hali kelmagan edi. 31 Shu bilan birga, xalq orasidagi koʻp odamlar Unga imon keltirdi. Ular:
— Masih kelsa ham, baribir bunchalik koʻp moʻjizali alomatlar koʻrsata olmaydi! — deyishardi.

Isoni tutib olmoqchilar

32 Odamlar Iso toʻgʻrisida shunday deb pichirlashayotganini farziylar eshitib qolishdi. Shunda bosh ruhoniylar* bilan farziylar Isoni qoʻlga olish uchun Maʼbad mirshablarini* yuborishdi.
33 Iso dedi:
— Men sizlar bilan qisqa bir muddat boʻlib, yana Meni Yuborganning oldiga qaytib boraman. 34 Sizlar Meni izlaysizlar–u, lekin topolmaysizlar. Men boradigan joyga sizlar borolmaysizlar.
35 Buni eshitgan yahudiylar oʻzaro shunday deb aytishardi:
— U qayerga bormoqchiki, biz Uni topa olmasak? Balki U boshqa yurtlarda yashaydigan yahudiylar orasiga bormoqchidir? Gʻayriyahudiylarga* ham taʼlim bermoqchidir? 36 “Sizlar Meni izlaysiz–u, lekin topolmaysizlar, Men boradigan joyga sizlar borolmaysizlar” degan gaplari bilan nima aytmoqchi ekan?

Hayotbaxsh suv va Ruh haqida

37 Chayla bayramining oxirgi, ulug‘ kunida Iso turib, baland ovozda xitob qildi:
— Kim chanqagan bo‘lsa, Mening oldimga kelib ichsin. 38 Shunda Muqaddas bitiklarda aytilganidek, Menga ishongan odamning ichidan hayotbaxsh suv daryo bo‘lib oqib chiqadi.
39 Iso shunday deganda, Muqaddas Ruhni nazarda tutgan edi. Unga ishonganlar Ruhni qabul qilib olishlari kerak edi. Lekin Ruh hanuz berilmagan edi, chunki Iso hali ulug‘lanmagan edi.

Iso tufayli xalq bo‘linadi

40 Olomon ichidan ba’zilari bu so‘zlarni eshitib shunday dedilar:
— Haqiqatan ham bu Odam biz kutgan payg‘ambar* ekan.
41 Boshqalari:
— Bu Masih, — deyishsa, yana boshqalari shunday deyishardi:
— Masih Jaliladan kelmaydi–ku! 42 Muqaddas bitiklarda, Masih Dovudning urug‘idan kelib chiqadi, U Dovud yashagan Baytlahm qishlog‘ida tug‘iladi, deb aytilmaganmi?!*
43 Shu tariqa Iso tufayli xalq ikkiga bo‘lindi. 44 Ba’zilar Uni qo‘lga olmoqchi bo‘lishdi, ammo hech kim Unga qo‘l tekkizmadi.
45 Shu payt Ma’bad mirshablari bosh ruhoniylarning va farziylarning oldiga qaytib kelishdi.
— Nega Uni olib kelmadingizlar? — deb so‘rashdi ulardan.
46 — Hech kim hech qachon bu Odamday gapirmagan, — dedi mirshablar.
47 — Mabodo U sizlarni ham yo‘ldan urmadimi? — deyishdi farziylar. 48 — Bosh ruhoniylar bilan farziylar orasida Unga ishongan bironta odam ham yo‘q! 49 Tavrotni bilmagan o‘sha qalang‘i–qasang‘ilar esa shundoq ham la’nat ostida qolgan!
50 Shunda farziylardan biri, ilgari Isoning oldiga borgan Nikodim* shunday savol berdi:
51 — Qonunimizga ko‘ra, nahotki biz odamni eshitmay turib, uning aybini topmasdan uni hukm qila olsak?!
52 — Sen ham Jaliladan bo‘lsang kerak–a? Muqaddas bitiklarni o‘rganib chiq, Jaliladan payg‘ambar chiqmasligi aniq, — deyishdi unga*.
53 Shundan keyin hammalari uy–uylariga tarqalib ketdilar.

8–BOB

Iso fohisha ayolni kechiradi

1 Iso Zaytun tog‘i* tomon ketdi. 2 Saharda yana Ma’badga qaytdi. Butun xalq Uning oldiga yig‘ilib keldi, U esa o‘tirib, odamlarga ta’lim bera boshladi. 3 Shu orada Tavrot tafsirchilari* bilan farziylar bir ayolni olib kelishdi. Ular bu ayolni zino qilayotganda ushlab olishgan edi. Ayolni hammaning oldiga turg‘izib, 4 shunday deyishdi:
— Ustoz, bu ayol zino qilayotganda ushlandi. 5 Muso qonunda bunday ayollarni toshbo‘ron qilishni buyurgan*. Siz nima deysiz?
6 Bu savol bilan ular Isoni tuzoqqa ilintirib, ayblashga asos topmoqchi edilar. Iso esa engashib barmog‘i bilan yerga yoza boshladi. 7 Ular bu savolni qayta–qayta so‘rayverganlari uchun, Iso o‘rnidan turib dedi:
— Sizning orangizda kim begunoh bo‘lsa, o‘sha birinchi bo‘lib ayolga tosh otsin.

8 So‘ng yana engashib, yerga yozishni davom ettirdi. 9 Ular bu gapni eshitib*,
kattalardan boshlab hammasi birin–ketin keta boshlashdi. Oxirida yolg‘iz Iso bilan
Uning oldida turgan ayol qoldi. 10 Iso o‘rnidan turib ayolga dedi:
— Ey ayol, boshqalar qani? Hech kim seni mahkum qilmadimi?
11 — Hech kim, Hazrat! — deb javob berdi ayol.
Iso dedi:
— Men ham seni mahkum qilmayman. Bor, bundan keyin boshqa gunoh qilma.

Iso Masih — olamning nuri

12 Iso yana xalqqa gapirib dedi:
— Men olamning nuriman. Kimki Menga ergashsa, hech qachon zulmatda yurmaydi,
balki hayot nuriga ega bo‘ladi.
13 Farziylar Isoning bu gapiga e’tiroz bildirdilar:
— Siz O‘zingizga O‘zingiz guvohlik beryapsiz. Bu guvohligingiz haqqoniy emas.
14 Iso shunday javob berdi:
— Men O‘zimga O‘zim guvohlik bersam ham, guvohligim haqqoniydir. Chunki Men
qayerdan kelib, qayerga ketayotganimni bilaman. Sizlar esa Mening qayerdan kelib,
qayerga ketayotganimni bilmaysizlar. 15 Sizlar insoniy o‘lchov bilan hukm qilasizlar.
Men esa hech kimni hukm qilmayman. 16 Bordi–yu, Men hukm qilsam ham, hukmim
haqqoniydir. Chunki Men O‘zim emas, balki Meni yuborgan osmondagi Otam bilan birga
hukm qilaman. 17 O‘zlaringizning Tavrotingizda: “Ikki guvohning shahodati
haqqoniydir”*, deb yozilgan–ku. 18 Shunday ekan, bitta guvoh Menman, ikkinchisi Meni
yuborgan Otadir.
19 Shunda ular Isodan:
— Otangiz qayerda? — deb so‘radilar. U bunga javoban dedi:
— Sizlar Meni ham, Otamni ham tanimaysizlar. Agar Meni taniganingizda edi,
Otamni ham tanigan bo‘lar edingizlar.
20 Bu so‘zlarni Iso Ma’badda ta’lim berayotib, xayr–ehson qutisining oldida aytdi.
Hech kim Uni qo‘lga olmadi, chunki Uning vaqt–soati hali kelmagan edi.

Isoni rad qilganlarning qismati

21 Iso ularga yana dedi:
— Men ketyapman. Sizlar Meni qidirasizlar va gunohkor bo‘lib o‘lasizlar. Men
boradigan joyga sizlar bora olmaysizlar.
22 — Nahotki U O‘zini O‘zi o‘ldirsa? “Men boradigan joyga sizlar bora olmaysizlar”,
deb aytyapti–ku, — deyishdi o‘zaro yahudiylar. 23 Iso ularga shunday dedi:
— Sizlar bu dunyodansizlar, Men esa yuqoridanman. Sizlar bu olamga mansubsizlar,
Men esa bu olamdan emasman. 24 Shuning uchun sizlarga: “Gunohkor bo‘lib o‘lasizlar”,
deb aytdim. Ha, agar O‘sha Men ekanligimga ishonmasangizlar, gunohkor bo‘lib
o‘lasizlar.
25 — Siz kimsiz? — deb so‘rashdi Isodan. Iso shunday dedi:
— Kimligimni sizlarga boshidan aytib kelyapman–ku! 26 Sizlarni ayblab aytadigan
gapim juda ko‘p. Lekin Meni Yuborgan haqdir, Men Undan nima eshitgan bo‘lsam,
o‘shani dunyoga ma’lum qilaman.
27 Ular esa Iso samoviy Otasi haqida gapirayotganini tushunmadilar. 28 Iso so‘zida
davom etdi:

— Inson O‘g‘lini yuqoriga ko‘targaningizda*, O‘sha Men ekanligimni bilib olasizlar. O‘shanda Men O‘zimcha hech narsa qilmaganimni, faqat Otam o‘rgatgan narsalarni aytganimni tushunib olasizlar. 29 Meni Yuborgan doimo Men bilan birgadir. U Meni yolg‘iz tashlab ketmagan. Zero, Men har doim Unga ma’qul bo‘lgan ishlarni qilaman.
30 Isoning aytgan gaplarini eshitgan ko‘p odamlar Unga imon keltirdilar.

Ozod qiladigan haqiqat

31 Shu vaqt Iso Unga ishongan yahudiylarga dedi:
— Agar Mening so‘zlarimga rioya qilsangizlar, haqiqiy shogirdlarim bo‘lasizlar.
32 Sizlar haqiqatni bilib olasizlar, haqiqat esa sizlarni ozod qiladi.
33 Ular shunday deb javob berishdi:
— Biz Ibrohim naslimiz. Hech qachon hech kimga qul bo‘lmaganmiz. Qanday qilib Siz, “Ozod bo‘lasizlar”, deb aytyapsiz?
34 Iso dedi:
— Sizlarga chinini aytayin: gunoh qiluvchi har bir kishi gunohning qulidir. 35 Qul hech qachon xonadon a’zosi bo‘la olmaydi, o‘g‘il esa abadulabad o‘z xonadonining a’zosidir. 36 Shunday ekan, agar O‘g‘il sizlarni ozod qilsa, haqiqatan ozod bo‘lasizlar.
37 Ibrohim nasli ekanligingizni bilaman. Biroq Mening jonimga qasd qilmoqchisizlar. Chunki Mening so‘zim qalbingizdan joy topmagan. 38 Men Otaning huzurida nima ko‘rgan bo‘lsam, o‘shani sizlarga aytyapman. Sizlar esa o‘z otangizdan o‘rganganingizni qilyapsizlar.

Ibrohim bolalari va iblis bolalari

39 Ular Isoga shunday javob berdilar:
— Bizning otamiz Ibrohimdir.
Iso shunday dedi:
— Agar Ibrohimning farzandlari bo‘lganingizda edi, Ibrohimning qilgan ishlarini qilgan bo‘lar edingizlar. 40 Men sizlarga Xudodan eshitgan haqiqatni so‘zlab berdim, xolos. Shunday bo‘lsa–da, sizlar Meni o‘ldirmoqchisizlar. Ibrohim bunday ish qilmagan.
41 Sizlar Ibrohimning emas, o‘z otangizning ishlarini qilyapsizlar.
— Iye, biz zinodan tug‘ilmaganmiz. Bizning bittayu bitta Otamiz — Xudoning O‘zi–ku! — deb javob berishdi Isoga. 42 Iso ularga shunday dedi:
— Agar Otangiz Xudo bo‘lganda edi, Meni yaxshi ko‘rgan bo‘lar edingiz, chunki Men Xudodan kelib, endi shu yerda turibman. Men O‘zimcha kelganim yo‘q, Meni U yubordi.
43 Nega aytganlarimni anglamayapsizlar?! Bunga sabab — so‘zlarimni hazm qila olmaganingiz. 44 Sizlarning otangiz Xudo emas, iblisdir. Sizlar o‘z otangizning nafsu ehtiroslarini bajo qilishni xohlaysizlar. Azaldanoq iblis qotil edi. U hech qachon haqiqat tarafdori bo‘lmagan, chunki unda haqiqat yo‘q. U yolg‘on so‘zlaganda, o‘ziga xos so‘zlaydi. Chunki u yolg‘onchi, yolg‘onning otasidir. 45 Ammo Men haqiqatni gapirganim uchun Menga ishonmayapsizlar. 46 Qaysi biringiz Meni biron gunohda ayblay olasiz? Agarda haqiqatni gapirayotgan bo‘lsam, nega Menga ishonmayapsizlar? 47 Kim Xudoga tegishli bo‘lsa, Xudoning so‘zlariga quloq soladi. Sizlar esa Xudoga begona bo‘lganingiz uchun quloq solmayapsizlar.

Iso azaldan mavjud

48 Bunga javoban yahudiylar shunday dedilar:
— Siz Samariyaliksiz–ku*, Sizni jin uribdi, deb to‘g‘ri aytgan ekanmiz!

49 Iso dedi:

— Meni jin urgani yoʻq. Men osmondagi Otamni hurmat qilaman. Sizlar esa Meni beobroʻ qilyapsizlar. 50 Men Oʻzimga obroʻ orttirmoqchi emasman. Lekin obroʻyimni koʻtaradigan bor, Uning Oʻzi hukm qiladi. 51 Sizlarga chinini aytayin: kim Mening soʻzimga rioya qilsa, hech qachon oʻlim koʻrmaydi.

52 Shunda yahudiylar dedilar:

— Sizni jin urganini endi aniq bilib oldik! Ibrohim oʻldi, paygʻambarlar ham oʻlib ketishgan. Siz esa: “Kim Mening soʻzimga rioya qilsa, hech qachon oʻlmaydi”, deyapsiz–a?! 53 Nahotki Siz vafot etgan otamiz Ibrohimdan ham ustun boʻlsangiz?! Paygʻambarlar ham oʻlib ketishgan–ku! Siz Oʻzingizni kim deb hisoblaysiz oʻzi?!

54 Iso shunday javob berdi:

— Agar Men Oʻzimni Oʻzim maqtasam, maqtovlarim behudadir. Otamning Oʻzi Meni maqtaydi. Sizlar Uni Xudoyimiz deb ataysizlar, 55 aslida esa Uni tanimaysizlar. Men esa Uni bilaman. Agar, Uni bilmayman, desam, sizlarga oʻxshagan yolgʻonchi boʻlaman. Men Uni bilaman va Uning soʻziga rioya qilaman. 56 Otangiz Ibrohim kelgan kunimni kutib, xursand boʻlgan edi. Oʻsha kunni koʻrib, qattiq quvondi.

57 — Siz hali ellik yoshga toʻlmagan boʻlsangiz, qanday qilib Ibrohimni koʻrgansiz?! — deyishdi yahudiylar Unga. 58 Iso ularga shunday javob berdi:

— Sizlarga chinini aytayin: Ibrohim tugʻilmasdan oldin Men bor boʻlganman*.

59 Shunda Isoni toshboʻron qilmoqchi boʻldilar. Iso esa yashirincha Ma’baddan chiqib ketdi*.

9–BOB

Iso tugʻma koʻrga shifo beradi

1 Iso yoʻlda ketayotib, bir tugʻma koʻr odamni koʻrib qoldi. 2 Shogirdlari Isodan soʻradilar:

— Ustoz, kimning gunohi uning koʻr boʻlib tugʻilishiga sababchi boʻldi? Oʻzinikimi yoki ota–onasinikimi?

3 Iso shunday javob berdi:

— Bu odamning gunohi ham, ota–onasining gunohi ham bunga sabab boʻlmagan. Xudoning ishlari unda namoyon boʻlishi uchun u koʻr tugʻilgan. 4 Kun yorugʻ ekan, Meni Yuborganning ishlarini qilishimiz lozim. Ana tun kelyapti, oʻshanda hech kim ish qila olmaydi. 5 Men olamda bor ekanman, olamning nuridirman.

6 Iso bularni aytdi–yu, yerga tupurdi, tupukdan loy qilib, koʻrning koʻzlariga surtdi. 7 Soʻng unga:

— Borib, Siloam hovuzida yuvingin, — dedi. (Siloam “yuborilgan” demakdir.)

Koʻr odam borib yuvindi va koʻra oladigan boʻlib qaytdi. 8 Shunda uning qoʻshnilari va ilgari uning sadaqa soʻraganini koʻrgan odamlar:

— Bu haligi tilanchilik qilib oʻtirgan odam emasmi? — deb soʻrashardi. 9 Ba’zilar:

— Bu xuddi oʻsha, — desalar, boshqalar:

— Yoʻq, oʻshanga oʻxshaydi, xolos, — deyishardi. Odamning oʻzi esa:

— Oʻsha menman, — deb ta’kidlardi.

10 — Unday boʻlsa, koʻzlaring qanday ochildi? — deb soʻradilar.

11 — Iso degan kishi loy qilib, koʻzlarimga surtdi–yu, “Borib, Siloam hovuzida

yuvingin”, dedi. Men borib yuvindim va ko‘radigan bo‘lib qoldim, — dedi shifo topgan ko‘r.

12 — O‘sha Odam qani? — deb so‘radilar.

— Bilmayman, — deb javob berdi u.

Farziylar sog‘aygan ko‘rni so‘roq qilishadi

13 Ilgari ko‘r bo‘lgan o‘sha odamni farziylarning oldiga keltirishdi. 14-15 Farziylar ham bu odamdan ko‘zlari qanday ochilganini so‘radilar.

— U ko‘zlarimga loy surtdi. Men yuvindim–u, ko‘zlarim ko‘radigan bo‘ldi, — dedi haligi odam.

Iso loy qilib, ko‘rning ko‘zlarini ochgan kun Shabbat kuni edi. Shuning uchun 16 farziylardan ba’zilari:

— Ko‘zlaringni ochgan Odam Xudodan emas, chunki U Shabbat kuniga rioya qilmayapti*, — dedilar. Boshqalari esa:

— Gunohkor odam bunday mo‘jizali alomatlarni qanday qila oladi? — deyishdi. Shunday qilib, oralarida kelishmovchilik paydo bo‘ldi.

17 Shunda farziylar ko‘r odamdan yana so‘radilar:

— U Kishi haqida sen nima deysan? U sening ko‘zlaringni ochdi–ku!

— U payg‘ambar, — deb javob berdi ko‘r.

18 Biroq yahudiylar ko‘zlari ochilgan odamning ota–onasini chaqirtirmaguncha, uning ilgari ko‘r bo‘lganiga va ko‘zlari ochilganiga ishonmadilar. 19 Ular ko‘rning ota–onasiga shunday savol berdilar:

— Ko‘r tug‘ilgan, deb aytgan o‘g‘lingiz shumi? Xo‘sh, endi qanday qilib uning ko‘zlari ko‘ryapti?

20 Ota–onasi javob berishdi:

— Bu bizning o‘g‘limiz ekanligini bilamiz. Uning ko‘r tug‘ilganini ham bilamiz. 21 Lekin qanday qilib ko‘zlari ko‘rayotganini va ko‘zlarini kim ochganini biz bilmaymiz. U balog‘atga yetgan, o‘zidan so‘ranglar. O‘zi uchun o‘zi javob bersin.

22 Ko‘rning ota–onasi yahudiylardan qo‘rqqanlari uchun shunday dedilar. Din arboblari bundan avval, kim Isoning Masihligini tan olsa, sinagogadan chetlashtirilsin, deb qaror qilgan edilar. 23 Ana shu sababdan ko‘rning ota–onasi: “U balog‘atga yetgan, o‘zidan so‘ranglar”, deb aytishgandi.

24 Shunday qilib, ilgari ko‘r bo‘lgan odamni ikkinchi marta chaqirib, deyishdi:

— Rostini aytaman, deb Xudoning nomi bilan qasam ich! Biz u Odamning gunohkorligini bilamiz.

25 Ko‘r shunday javob berdi:

— U gunohkormi, yo‘qmi, men bilmayman. Shuni bilamanki, men ko‘r edim, endi esa ko‘zlarim ko‘ryapti.

26 — U senga nima qildi? Ko‘zlaringni qanday ochdi? — deb undan so‘radilar.

27 — Sizlarga aytib berdim–ku, ammo sizlar quloq solmadingizlar! Nega buni yana eshitmoqchisizlar?! Nahotki sizlar ham Uning shogirdlari bo‘lmoqchisizlar?! — dedi u odam. 28 Yahudiylar esa uni haqoratlab, deyishdi:

— Sen o‘zing Uning shogirdisan! Biz esa Musoning shogirdlarimiz! 29 Musoga Xudo gapirganini bilamiz. Bu Kishi–chi, Uning qayerdanligini ham bilmaymiz.

30 Ko‘zi ochilgan odam shunday javob berdi:

— Ana shunisi juda ajablanarli–da! Sizlar Uning qayerdanligini bilmaysizlar, U esa ko‘zlarimni ochdi! 31 Gunohkorlarga Xudo quloq solmasligini bilamiz. Uning irodasiga amal qilgan taqvodorlarga esa Xudo quloq soladi. 32 Tug‘ma ko‘rning ko‘zlarini biror kishi ochgani hayotda eshitilmagan gap. 33 Agar u Kishi Xudodan bo‘lmaganda edi, hech narsa qilolmasdi.

34 Yahudiylar bunga javoban:

— Sen butunlay gunoh ichida tug‘ilgansan, endi bizga aql o‘rgatyapsanmi?! — deyishdi–da, uni sinagogadan haydab chiqarishdi.

Qalbi ko‘rlar

35 O‘sha odamning haydab chiqarilganligini Iso eshitdi–yu, uni qidirib topdi.

— Sen Inson O‘g‘liga* ishonasanmi? — deb so‘radi undan.

36 U odam esa Isoga dedi:

— Hazrat, U kimdirki, men Unga ishonsam?

37 — Uni ko‘rib turibsan, U bilan gaplashib turibsan, — dedi Iso. 38 Shunda u odam:

— Ishonaman, yo Rabbiy, — dedi–da, Isoga sajda qildi.

39 Iso:

— Ko‘rlar ko‘rsin, ko‘zi ochiqlar esa ko‘r bo‘lsin deb, Men bu dunyoni hukm qilgani kelganman, — dedi.

40 Uning atrofida ba’zi farziylar turgan edi. Ular bu gapni eshitgach:

— Nahotki bizlar ham ko‘r bo‘lsak? — deb so‘rashdi. 41 Iso ularga dedi:

— Agar ko‘r bo‘lganingizda, gunohda ayblanmas edingiz. Lekin sizlar “Ko‘zlarimiz ko‘ryapti” deganingiz uchun gunohingiz o‘z bo‘yningizda qoladi.

10–BOB

Iso — yaxshi cho‘pon

1 Iso dedi: “Sizlarga chinini aytayin: kim qo‘y qo‘rasiga eshikdan kirmay, boshqa yo‘ldan oshib tushsa, u o‘g‘ri va bosqinchidir. 2 Eshikdan kirgan odam esa qo‘ylarning cho‘ponidir. 3 Qorovul unga eshikni ochib beradi. Qo‘ylar uning ovoziga quloq soladi. U esa o‘z qo‘ylarini nomma–nom chaqirib, tashqariga olib chiqadi. 4 U o‘z qo‘ylarini qo‘radan olib chiqqanda, ularning oldida boraveradi. Qo‘ylar esa unga ergashadi, chunki ular cho‘ponning ovozini biladilar. 5 Begona kishiga esa ergashmaydilar. Aksincha, begonaning ovozini tanimay, undan qochadilar.”

6 Iso bu matalni aytib berganda, tinglovchilar U nima demoqchi ekanligini tushunmadilar. 7 Shu sababdan Iso yana dedi: “Sizlarga chinini aytay: Men qo‘ylar uchun eshikman. 8 Mendan oldin kelganlarning hammasi o‘g‘ri va bosqinchi edilar. Lekin qo‘ylar ularga quloq solmadilar. 9 Men eshikman. Kim Men orqali kirsa, najot topadi. U kirib chiqib, yaylov ham topadi. 10 O‘g‘ri faqat o‘g‘irlash, bo‘g‘izlash, barbod qilish uchun keladi. Men esa ularga hayot, farovon hayot berish uchun kelganman.

11 Men yaxshi cho‘ponman. Yaxshi cho‘pon qo‘ylari uchun jonini fido qiladi.
12 Yollangan odam esa qo‘ylarning na cho‘poni, na egasidir. U bo‘rining kelganini ko‘rgach, qo‘ylarni tashlab qochadi. Bo‘ri esa qo‘ylarni talab, tumtaraqay qiladi.
13 Yollangan odam shunchaki yollangan bo‘lgani uchun va qo‘ylar haqida qayg‘urmagani uchun qochadi.

14-15 Men yaxshi cho‘ponman. Osmondagi Otam Meni va Men Otamni bilganimday,

Men qo‘ylarimni bilaman, ular ham Meni biladilar. Men qo‘ylarim uchun jonimni fido
qilaman. 16 Bu qo‘rada bo‘lmagan boshqa qo‘ylarim ham bor. Ularni ham olib kelishim
kerak. Ular ham Mening ovozimga quloq soladi, shunda bir suruv, bir cho‘pon bo‘ladi.
17 Men jonimni qaytib olishim uchun uni fido qilaman, shu bois Otam Meni yaxshi
ko‘radi. 18 Hech kim jonimni Mendan tortib ololmaydi. Men O‘z ixtiyorim bilan uni fido
qilaman. Jonimni berishga va uni qaytarib olishga hokimiyatim bor. Buni Menga Otam
buyurgan.”

19 Isoning bu so‘zlari tufayli, yahudiylar orasida yana kelishmovchilik kelib chiqdi.
20 Oralaridan ko‘pchilik:

— Uni jin uribdi, U aqldan ozgan! Nega Unga quloq solyapsizlar? — der edilar.

21 Boshqalari esa:

— Bu jin urganning so‘zlari emas. Jin ko‘r odamning ko‘zlarini ocha olarmidi?! —
deb aytishardi.

Isoni rad qilishadi

22 O‘sha vaqtda Quddusda Ma’badni bag‘ishlash bayrami* nishonlanayotgan edi. Qish
fasli edi. 23 Iso Ma’badda Sulaymon ayvoni* degan joyda aylanib yurar edi. 24 Yahudiylar
Uning atrofini o‘rab oldilar.

— Qachongacha bizni ikkilantirasiz? Agar Masih bo‘lsangiz, bizga ochig‘ini ayting, —
deyishdi.

25 Iso ularga javob berdi:

— Men sizlarga aytdim, ammo sizlar ishonmayapsizlar. Osmondagi Otam nomidan
qilayotgan ishlarim kimligimni ko‘rsatib turibdi. 26 Sizlar esa ishonmayapsizlar, chunki
sizlar Mening qo‘ylarimdan emassizlar. 27 Mening qo‘ylarim ovozimga quloq soladi. Men
ularni taniyman, ular esa Menga ergashib yurishadi. 28 Men ularga abadiy hayot
beraman, ular hech qachon halok bo‘lmaydilar. Hech kim ularni Mening qo‘limdan tortib
ololmaydi. 29 Ularni Menga bergan Otam hammadan buyukdir. Otamning qo‘lidan ularni
tortib olishga hech kimning kuchi yetmaydi. 30 Men va Otam birmiz.

31 Yahudiylar yana Isoni toshbo‘ron qilmoqchi bo‘ldilar.

32 — Men sizlarga Ota buyurgan ko‘p xayrli ishlarni ko‘rsatdim, ularning qaysi biri
uchun Meni toshbo‘ron qilmoqchisizlar? — deb so‘radi Iso. 33 Yahudiylar Unga shunday
deyishdi:

— Xayrli ishingiz uchun emas, kufrligingiz uchun Sizni toshbo‘ron qilmoqchimiz. Siz
odam bo‘la turib O‘zingizni Xudo deyapsiz!

34 Iso shunday javob qaytardi:

— Sizlar o‘zlaringiz doim o‘qiydigan Muqaddas bitiklarda*: “Aytdimki, hammangiz
xudolarsiz”*, deb yozilgan emasmi?! 35 O‘zlaringiz bilasizlar: Muqaddas bitiklarni
o‘zgartirib bo‘lmaydi. Xudoning kalomini olgan odamlar “xudolar” deb atalgan–ku!
36 Meni esa Otam O‘zi uchun ajratib olib, dunyoga yuborgan. Men “Xudoning O‘g‘liman*”
deganim uchun kufrlik qilgan bo‘lamanmi?! 37 Agar Men Otamning ishlarini qilmayotgan
bo‘lsam, Menga ishonmay qo‘ya qolinglar. 38 Bordi–yu, Uning ishlarini qilayotgan
bo‘lsam, Menga ishonmasangiz ham, qilayotgan ishlarimga ishoninglar. Shunda Ota
Menda va Men Otada ekanimni bilib, anglab olasizlar.

39 Ular yana Isoni ushlab olishga harakat qildilar, ammo Iso ularning changalidan
qutulib qoldi.

40 So‘ng Iso Iordan daryosining sharq tomoniga, ilgari Yahyo odamlarni cho‘mdirib
yurgan joyga qaytib borib, u yerda qoldi. 41 Uning oldiga ko‘p odamlar kelishardi. Ular
shunday deb aytishardi: “Yahyo hech qanday mo‘jizali alomat ko‘rsatmagan edi, lekin
Yahyoning bu Odam haqida aytgan hamma gapi to‘g‘ri chiqdi.” 42 Shunday qilib, o‘sha
yerdagi ko‘p odamlar Isoga ishondilar.

11–BOB

Lazarning o‘limi

1 Baytaniya qishlog‘ida* Lazar ismli bir odam kasal bo‘lib yotgan edi. Maryam va
uning opasi Marta ham shu qishloqda yashar edilar. 2 Keyinchalik Rabbimiz Isoga atir
moy surtgan va Uning oyoqlarini sochi bilan artib quritgan o‘sha Maryam edi*. Kasal
yotgan Lazar esa Maryamning akasi edi.
3 Opa–singil Isoga:
— Hazrat, Sizning aziz do‘stingiz kasal, — degan xabar yuborishdi. 4 Iso buni eshitib,
shunday dedi:
— Bu kasallik o‘lim bilan yakunlanmaydi, balki Xudoning ulug‘lanishiga va shu
orqali Xudo O‘g‘lining* ulug‘lanishiga sabab bo‘ladi.
5 Iso Martani, uning singlisini va Lazarni yaxshi ko‘rar edi. 6 Ammo Lazarning xasta
ekanini bilsa ham, turgan joyida yana ikki kun qoldi. 7 Shundan so‘ng U shogirdlariga:
— Yahudiyaga qaytib boraylik, — dedi.
8 Shogirdlari esa shunday dedilar:
— Ustoz, yaqindagina yahudiylar Sizni toshbo‘ron qilmoqchi edilar–ku! Endi yana u
yerga bormoqchimisiz?
9 Iso javob berdi:
— Kunduz o‘n ikki soatdan iborat emasmi?! Kim kunduzi yursa, qoqilmaydi, chunki
bu dunyoning nurini ko‘radi. 10 Kechasi yurgan esa qoqiladi, chunki uning o‘zida nur
yo‘q.
11 Bu so‘zlarini aytib bo‘lib, ularga yana dedi:
— Do‘stimiz Lazar uxlab qoldi. Men uni uyg‘otgani ketyapman.
12 — Hazrat, agar uxlayotgan bo‘lsa, tuzalib ketadi, — dedi shogirdlari.
13 Iso Lazarning o‘limini nazarda tutgan edi. Shogirdlar esa Iso odatdagi uyqu
to‘g‘risida gapirdi, deb o‘yladilar. 14 Keyin Iso ularga ochig‘ini aytdi:
— Lazar vafot etdi. 15 Men uning yonida bo‘lmaganimdan xursandman, chunki bu
vaziyat sizlarning ishonishingizga imkon beradi. Qani, endi uning oldiga boraylik.
16 Shunda To‘ma, ya’ni Didimus* boshqa shogirdlarga:
— Qani, yuringlar, biz ham Iso bilan o‘lamiz! — dedi.

Iso — tiriklik manbai

17 Iso u yerga yetib borib bildiki, Lazarning qabrga qo‘yilganiga to‘rt kun bo‘lgan
ekan. 18 Baytaniya qishlog‘i Quddusdan bor–yo‘g‘i uch chaqirimcha* masofada
joylashgan edi. 19 Quddusdagi ko‘p yahudiylar Marta bilan Maryamning oldiga akasining
vafoti munosabati ila tasalli berish uchun borgan edilar. 20 Marta Isoning kelayotganini
eshitib, Uni kutib olgani chiqdi. Maryam esa uyda qoldi.
21 — Hazrat! — dedi Marta Isoga. — Agar Siz bu yerda bo‘lganingizda edi, akam
o‘lmagan bo‘lardi. 22 Ammo hozir ham bilaman, Siz Xudodan nima so‘rasangiz, Xudo

Sizga beradi.
23 — Sening akang tiriladi, — dedi Iso.
24 — Bilaman, oxiratda o'liklar tirilganda tiriladi, — dedi Marta. 25 Iso unga dedi:
— Men tirilish va hayotdirman. Menga ishongan odam o'lsa ham yashaydi. 26 Kimda–kim Menga ishonib yashasa, to abad o'lmaydi. Bunga ishonasanmi?
27 — Ha, Hazrat, — dedi Marta, — Siz dunyoga keladigan Masih, Xudoning O'g'li ekaningizga ishonaman.
28 Marta shunday dedi–yu, borib singlisi Maryamni chaqirdi. Unga sekingina dedi:
— Ustoz shu yerda, U seni chaqiryapti.
29 Maryam buni eshitgach, shoshib o'rnidan turdi–da, Isoning oldiga ketdi. 30 Iso hali qishloqqa kirmagan, hanuz Marta Uni kutib olgan joyda edi. 31 Maryam bilan uyda bo'lgan va unga tasalli berayotgan odamlar uning shoshilib o'rnidan turib tashqariga chiqqanini ko'rishdi. Maryam yig'i–sig'i qilgani qabrga ketyapti, deb o'ylab, uning orqasidan ketishdi.
32 Maryam Iso turgan yerga yetib kelib, Uni ko'rdi–yu, oyog'iga yiqilib dedi:
— Hazrat! Agar Siz shu yerda bo'lganingizda edi, mening akam o'lmagan bo'lardi!
33 Maryam ham, u bilan kelganlar ham yig'layotgan edilar. Iso buni ko'rib, qattiq iztirobga tushdi, ko'ngli o'rtanib ketdi.
34 — Uni qayerga qo'ydingizlar? — deb so'radi.
— Yuring, Hazrat, ko'rasiz! — dedilar.
35 Isoning ko'zlaridan duv–duv yosh oqdi. 36 O'sha yerdagi odamlar:
— Qaranglar, uni qanchalik yaxshi ko'rar ekan! — deyishdi. 37 Ulardan ba'zilari esa shunday deyishdi:
— U ko'rning ko'zlarini ochgan. Lazarni ham o'limdan olib qolsa bo'lmasmidi?!

Iso Lazarni tiriltiradi

38 Iso tag'in qattiq iztirob chekib, qabr oldiga keldi. Qabr bir g'or bo'lib, og'zi tosh bilan yopilgan edi. 39 Iso:
— Toshni olib tashlanglar! — dedi. Marhumning singlisi Marta Unga dedi:
— Hazrat, jasad hidlanib qolgan–ku! Axir, qabrga qo'yilganiga to'rt kun bo'ldi!
40 — Agar ishonsang, Xudoning ulug'vorligini ko'rasan, deb senga aytmaganmidim?! — dedi Iso.
41 Toshni olib tashladilar. Iso esa osmonga ko'z tikib, dedi:
— Ey Ota! Meni eshitganing uchun Senga shukurlar aytaman. 42 Sen Meni doimo eshitishingni bilaman. Lekin bu so'zlarni shu yerda turgan xalq uchun aytyapman, toki Meni Sen yuborganingga ular ishonsin.
43 Shunday dedi–yu, baland ovoz bilan xitob qildi:
— Lazar, tashqariga chiq!
44 Shu payt qo'lu oyoqlari kafanlangan, yuzi ro'mol bilan o'ralgan marhum chiqib keldi.
— Kafanini yechinglar, uni qo'yib yuboringlar, — dedi Iso odamlarga.

Isoni o'ldirish rejasi

45 Maryamni yo'qlagani kelgan odamlarning ko'pchiligi Isoning qilgan ishini ko'rib, Unga ishonishdi. 46 Ammo ba'zilari farziylarning oldiga borib, Isoning qilganlarini aytib berishdi.

47 Shundan keyin bosh ruhoniylar va farziylar Oliy kengash* chaqirib, deyishdi:
— Nima qilamiz? Bu Odam juda koʻp moʻjizali alomatlar koʻrsatib yuribdi–ku! 48 Buni
davom etishiga yoʻl qoʻysak, hamma Unga ishonib ketadi. Rimliklar kelib, Ma’badimizni
ham, xalqimizni ham xonavayron qiladilar.
49 Ulardan biri, oʻsha yili oliy ruhoniy boʻlgan Kayafas* soʻz oldi:
— Sizlar hech narsani bilmaysizlar! 50 Butun xalq halok boʻlgandan koʻra, bitta
odamning xalq uchun oʻlishi oʻzingiz uchun yaxshiroq–ku! Nahotki buni
tushunmasangizlar?!
51 Bu soʻzlarni u oʻzidan–oʻzi aytmagan edi. Balki oʻsha yili oliy ruhoniy sifatida
Isoning xalq uchun oʻlishini bashorat qilgan edi. 52 Iso nafaqat yahudiy xalqi uchun, balki
Xudoning tarqoq boʻlgan hamma farzandlarini* birlashtirish uchun oʻlishi kerak edi.
53 Shunday qilib, oʻsha kundan boshlab, Isoni oʻldirishga til biriktirdilar. 54 Iso esa
endi yahudiylar orasida ochiqchasiga yurmaydigan boʻldi. U choʻl yaqinidagi Efrayim
shahriga* borib, Oʻz shogirdlari bilan oʻsha yerda qoldi.
55 Yahudiylarning Fisih bayrami yaqinlashayotgan edi. Mamlakatning hamma
tomonidan odamlar bayramdan oldin poklanish uchun Quddusga borishdi. 56 Shu
vaqtda Isoni izladilar. Ma’badda yigʻilib turganlar oʻzaro: “Nima deb oʻylaysizlar? U
bayramga keladimi?” deb soʻrashdi. 57 Bosh ruhoniylar va farziylar esa Isoni qoʻlga
olmoqchi boʻlib, shunday buyruq bergan edilar: “Kim Isoning qayerdaligini bilib qolsa,
xabar qilsin.”

12–BOB

Maryam Isoga atir moy surtadi

1 Fisih bayramidan olti kun oldin Iso Lazarning qishlogʻi Baytaniyaga* bordi. Iso
oʻsha Lazarni oʻlikdan tiriltirgan edi. 2 Oʻsha yerda Isoga ziyofat hozirladilar. Marta
xizmat qilib yurgan edi, Lazar esa Iso va mehmonlar bilan birga dasturxon oldida
yonboshlagan edi. 3 Shu payt Maryam bir shisha* toza, qimmatbaho sunbul moyini* olib
kelib, Isoning oyoqlariga surtdi, soʻng sochlari bilan artdi. Uy atir moyning xushboʻy
hidiga toʻlib ketdi.
4 Isoning shogirdlaridan biri, Unga xiyonat qiladigan Yahudo Ishqariyot dedi:
5 — Bu moyni uch yuz kumush tangaga* sotib, kambagʻallarga boʻlib bersa
boʻlmasmidi?!
6 U shu gapni kambagʻallarga qaygʻurgani uchun emas, balki oʻgʻri boʻlgani uchun
aytdi. Pul qutisi Yahudoning nazoratida edi, qutiga solinadigan puldan u oʻgʻirlab
turardi. 7 Iso shunday dedi:
— Maryamni tinch qoʻyinglar! Zotan, u Meni dafn kunimga tayyorladi*.
8 Kambagʻallar har doim sizlar bilan birga boʻladi. Men esa har doim ham sizlar bilan
birga boʻlmayman.
9 Bir talay yahudiylar Isoning Baytaniyada ekanligini bilib kelishdi. Ular nafaqat
Isoni, balki Iso oʻlikdan tiriltirgan Lazarni ham koʻrishni istardilar. 10 Bosh ruhoniylar
Lazarni ham oʻldirishni rejalashtirgan edilar. 11 Chunki koʻp yahudiylar Lazar tufayli Iso
tomoniga oʻtib, Unga imon keltirayotgan edilar.

Iso Quddusga tantanali ravishda kiradi

12 Ertasi kuni bayramga borgan bir talay xaloyiq Isoning Quddusga kelayotganini

eshitib qoldi. 13 Ular palma daraxti shoxlaridan* olishdi, Uni qarshi olgani chiqib,
shunday deb hayqirishardi:

“Tasanno!
Egamiz nomidan kelayotgan Inson baraka topsin!*
Isroilning shohi muborak bo‘lsin!”

14 Iso bir xo‘tikni topib, unga mindi, xuddi Muqaddas bitiklarda yozilganday:

15 “Ey Quddus xalqi*, qo‘rqma!
Mana, Shohingiz xo‘tikni minib kelyapti.”*

16 Isoning shogirdlari avval buni tushunmadilar. Iso ulug‘langandan keyingina ular
bu so‘zlarning U haqda yozilganini va xalq xuddi yozilganidek qilganini esladilar. 17 Iso
Lazarni qabrdan chaqirib tiriltirganiga guvoh bo‘lgan olomon Isoga ergashib, bu haqda
hammaga aytardi. 18 Isoning qilgan bu mo‘jizali alomati haqida eshitgan ko‘p odamlar
Uni kutib olgani chiqqan edilar.
19 Farziylar esa bir–biriga:
— Qaranglar, qo‘limizdan hech narsa kelmadi. Butun dunyo Uning ortidan
bormoqda! — deyishardi.

Iso O‘z o‘limi haqida gapiradi

20 Xudoga sajda qilish uchun bayramga kelganlar orasida ba’zi g‘ayriyahudiylar* bor
edi. 21 Ular Filipning oldiga borib (Filip Jalilaning Baytsayda shahridan edi) shunday deb
aytishdi:
— Taqsir, biz Isoni ko‘rmoqchimiz.
22 Filip borib, bu haqda Endrusga aytdi. So‘ng ikkalovi Isoning oldiga borib, Unga
aytishdi. 23 Iso ularga shunday javob berdi:
— Inson O‘g‘li ulug‘lanadigan vaqt–soati keldi. 24 Sizlarga chinini aytayin: agar
bug‘doyning doni yerga tushib o‘lmasa, u bir donligicha qoladi. Agarda o‘lsa, ko‘p hosil
beradi. 25 Kim o‘z jonini sevsa, uni yo‘qotadi. Kim bu dunyoda o‘z jonidan voz kechsa, uni
abadiy hayot uchun saqlab qoladi. 26 Kim Menga xizmat qilmoqchi bo‘lsa, orqamdan
yursin. Men qayerda bo‘lsam, xizmatchim ham o‘sha yerda bo‘lsin. Menga xizmat qilgan
odamni osmondagi Otam hurmat qiladi. 27 Endi esa yuragim siqilib ketyapti. Nima ham
der edim?! “Ey Ota, bu vaqt–soatdan Meni saqla”, deb ayta olarmidim?! Men shu vaqt–
soat uchun kelganman–ku! 28 Ey Ota, O‘z nomingni ulug‘lagin!
Iso shunday deyishi bilanoq osmondan:
— Men nomimni ulug‘ladim, bundan keyin ham ulug‘layman, — degan sado keldi.
29 U yerda turgan olomon bu sadoni eshitib, momaqaldiroq deb o‘yladi. Boshqalar esa:
— Unga farishta gapirdi! — deyishdi.
30 Bunga javoban Iso dedi:
— Bu sado Men uchun emas, sizlar uchun bo‘ldi. 31 Endi bu dunyo hukm qilinadi, bu
dunyoning yovuz hukmdori* haydab chiqariladi. 32 Men yerdan yuqoriga
ko‘tarilganimda, hammani O‘zimga jalb qilaman.
33 Iso bu so‘zlarni qay yo‘l bilan o‘lishini bildirish uchun aytdi.
34 Xalq bunga javoban dedi:

— Biz Tavrotdan, Masih abadiy yashaydi, deb eshitganmiz. Qanday qilib Sen, Inson O‘g‘li yuqoriga ko‘tarilishi kerak, deb aytyapsan? Inson O‘g‘li kim o‘zi?
35 Iso ularga dedi:
— Nur yana qisqa bir muddat sizlar bilan bo‘ladi. Nur borida yuringlar, tag‘in zulmat sizlarni qamrab olmasin. Zulmatda yuradigan kishi qayerga ketayotganini bilmaydi.
36 Nur hanuz sizlar bilan ekan, nurga ishoninglar, shunda nur farzandlari bo‘lasizlar.
Bularni aytib bo‘lgach, Iso uzoqlashib, xalqdan yashirindi.

Xalqning o‘jarligi va imonsizligi

37 Iso xalqning ko‘z o‘ngida shuncha ko‘p mo‘jizali alomatlar yaratgan bo‘lsa ham, ular Isoga ishonmas edilar. 38 Shu tariqa Ishayo payg‘ambarning so‘zi bajo bo‘ldi:

> “Ey Egamiz, bizning xabarimizga kim ishondi?
> Sening qudratli kuching kimga ayon bo‘ldi?”*

39 Haqiqatan ham, ular ishona olmadilar. Negaki, Ishayo ular haqida yana shunday deb aytgandi:

> 40 “Egamiz ularning ko‘zlarini ko‘r qildi,
> Aqllarini o‘tmas qildi.
> Toki ko‘zlari bilan ko‘rmasinlar,
> Aqllari bilan anglamasinlar,
> Tag‘in Menga qaytib, shifo topmasinlar.”*

41 Ishayo Masihning ulug‘vorligini ko‘rgani uchun bu so‘zlarni aytgan edi.
42 Shunga qaramay, ko‘p yahudiy yo‘lboshchilari ham Isoga imon keltirdilar. Lekin ular farziylar tufayli buni ochiqchasiga tan olmas edilar, chunki sinagogadan haydalishdan qo‘rqardilar. 43 Axir, ular Xudoning maqtovidan ko‘ra, insonning maqtovini yaxshi ko‘rardilar.
44 Iso xitob qilib dedi:
— Menga ishongan odam Menga emas, balki Meni Yuborganga ishongan bo‘ladi.
45 Meni ko‘rgan odam Meni Yuborganni ko‘rgan bo‘ladi. 46 Menga ishongan bironta odam zulmatda qolmasin deb, Men dunyoga nur bo‘lib keldim. 47 Agar kim Mening so‘zlarimni eshitib, rioya qilmasa*, Men uni hukm qilmayman. Men dunyoni hukm qilish uchun emas, najot berish uchun kelganman. 48 Meni rad qilib, so‘zlarimni qabul qilmagan odamni hukm qiluvchi bor. Unday odamni oxiratda Men emas, aytgan so‘zim hukm qiladi. 49 Zotan, Men O‘zimcha gapirganim yo‘q. Meni yuborgan samoviy Ota nima aytishimni, qanday gapirishimni Menga amr etgan. 50 Uning amri esa abadiy hayot berishini bilaman. Xullas, nima aytayotgan bo‘lsam, Otam Menga aytganday sizlarga aytyapman.

13–BOB

Iso O‘z shogirdlarining oyoqlarini yuvadi

1 Fisih bayramiga oz qolgan edi. Iso bu dunyoni tark etib, osmondagi Otasi oldiga boradigan vaqt–soati kelganini bilar edi. U dunyodagi O‘zinikilarni yaxshi ko‘rar edi, ularni oxirigacha yaxshi ko‘rdi.

2 Kechki ovqat payti edi. Shimoʻn oʻgʻli Yahudo Ishqariyotning diliga iblis allaqachon
Isoga xiyonat qilish niyatini solgan edi. 3 Iso esa Otasi hamma narsani Uning qoʻliga
berganini bilar edi, U Xudodan kelib, yana Xudoning oldiga qaytayotganini ham bilar edi.
4 Shunday qilib, Iso dasturxondan turib, ustki kiyimini yechib tashladi. Sochiqni olib
beliga bogʻladi. 5 Keyin togʻoraga suv quyib, shogirdlarining oyoqlarini yuvishga tushdi.
Beliga bogʻlagan sochiq bilan ularning oyoqlarini artib quritdi.
6 Iso Butrusning* oldiga keldi.
— Hazrat, nahot oyoqlarimni Siz yuvsangiz?! — dedi Butrus.
7 — Hozir nima qilayotganimni sen bilmaysan, keyin tushunib olasan, — dedi Iso
unga javoban.
8 — Mening oyoqlarimni ikki dunyoda ham yuvmaysiz! — dedi Butrus.
— Agar oyoqlaringni yuvmasam, Menga qarashli boʻlmaysan, — dedi Iso. 9 Shunda
Butrus dedi:
— Hazrat, nafaqat oyoqlarimni, qoʻllarim bilan boshimni ham yuvib qoʻying!
10 Iso unga dedi:
— Choʻmilgan odam faqat oyogʻini yuvsa bas, u tamoman pokdir. Sizlar ham
poksizlar, ammo hammangiz emas.
11 Iso Oʻziga xoinlik qiladigan odamni bilar edi, shuning uchun: “Hammangiz ham
pok emassizlar”, dedi.
12 Shogirdlarining oyoqlarini yuvib boʻlgach, Iso ustki kiyimini kiyib, yana dasturxon
oldiga yonboshladi. Soʻng shogirdlaridan soʻradi:
— Hozir nima qilganimni tushundingizlarmi? 13 Sizlar Meni “Ustoz”, “Hazrat” deb
chaqirasizlar va toʻgʻri qilasizlar, chunki Men xuddi shundayman. 14 Agar Men
Hazratingiz va Ustozingiz boʻla turib oyoqlaringizni yuvgan boʻlsam, sizlar ham bir–
biringizning oyoqlaringizni yuvishingiz shart. 15 Men sizlarga nima qilgan boʻlsam, sizlar
ham oʻshani qilishingiz kerak. Men sizlarga oʻrnak koʻrsatdim. 16 Sizlarga chinini aytayin:
qul oʻz xoʻjayinidan ustun emas, elchi ham uni yuborgandan ustun emas. 17 Agar gapimni
uqqan boʻlsangiz, bunga amal qilinglar, shunda baxtli boʻlasizlar!

Yahudoning Isoga xiyonati haqida karomat

18 Iso gapida davom etdi:
— Mening gaplarim hammangizga tegishli emas. Men kimlarni tanlaganimni
bilaman. Muqaddas bitiklarda: “Nonimni yegan kishi Menga qarshi bosh koʻtardi”*, deb
aytilgan. Bu soʻzlar bajo boʻlishi kerak. 19 Men buni sizlarga hozirdan, yuz bermasdan
oldin, aytib qoʻyyapman. Toki yuz berganda, Masih Men ekanligimga* ishoninglar.
20 Sizlarga chinini aytayin: kim Men yuborgan odamni qabul qilsa, Meni qabul qilgan
boʻladi. Meni qabul qilgan esa Meni Yuborganni qabul qilgan boʻladi.
21 Iso qattiq iztirob chekib, dedi:
— Sizlarga chinini aytayin, orangizdan bittasi Menga xiyonat qiladi.
22 Shogirdlari esa U kimni nazarda tutayotganini bilmay, gangib bir–biriga qarab
turar edilar. 23 Shogirdlaridan biri Isoning yonida yonboshlagan edi. U Isoning sevikli
shogirdi* edi. 24 Butrus oʻsha shogirdga: “Iso kim haqida gapiryapti, soʻra–chi”, deb imo–
ishora qildi. 25 Shunda u engashib, Isodan:
— Hazrat, u kim? — deb soʻradi. 26 Iso javob berdi:
— Men bir burda nonni kosaga botirib kimga bersam, u oʻshadir, — dedi. Soʻng

burda nonni botirib, Shimoʻn oʻgʻli Yahudo Ishqariyotga berdi. 27 Yahudo burdani olar–olmas, shayton uning ichiga kirib oldi.

— Qiladiganingni tezroq qil, — dedi unga Iso.

28 Dasturxon atrofidagilardan hech kim nima uchun Iso bu soʻzlarni Yahudoga aytganini tushunmadi. 29 Pul qutisi Yahudoda boʻlgani sababli, ba'zilari: "Iso unga, bayram uchun bizga kerak boʻladigan narsalarni sotib ol, deyapti yoki, kambagʻallarga bir nima ber, deyapti", deb oʻylardilar. 30 Yahudo esa oʻsha burda nonni olgan zahoti tashqariga chiqib ketdi. Tun edi.

Bir–biringizni sevinglar

31 Yahudo chiqib ketgach, Iso dedi:

— Inson Oʻgʻlining ulugʻvorligi ayon boʻladigan vaqti keldi. U orqali Xudoning ulugʻvorligi ayon boʻladi. 32 Xudoning ulugʻvorligi Inson Oʻgʻli orqali ayon boʻlar ekan, tez orada Xudo Inson Oʻgʻlini Oʻz ulugʻvorligiga sherik qiladi. 33 Bolalarim! Endi Men sizlar bilan uzoq boʻlmayman. Meni qidirasizlar. Yahudiylarga aytgan edim, sizlarga ham aytyapman: Men boradigan joyga sizlar borolmaysizlar. 34 Sizlarga yangi amr beryapman: bir–biringizni sevinglar. Men sizlarni qanday sevgan boʻlsam, sizlar ham bir–biringizni shunday sevinglar. 35 Agar bir–biringizni sevsangiz, sizlar Mening shogirdlarim ekaningizni hamma shundan bilib oladi.

Butrusning Isodan tonishi haqida karomat

36 Butrus Isoga dedi:

— Hazrat, Siz qayerga ketyapsiz?

— Hozir Men boradigan joyga sen orqamdan borolmaysan, keyinchalik borasan, — dedi unga Iso.

37 Butrus soʻradi:

— Hazrat, nega hozir orqangizdan borolmas ekanman? Men Siz uchun jonimni berishga tayyorman!

38 Iso javob berdi:

— Sen rostdan ham Men uchun joningni berishga tayyormisan?! Senga chinini aytaman, xoʻroz qichqirmasdanoq, sen uch marta Mendan tonasan!

14–BOB

Iso yoʻl, haqiqat va hayotdir

1 Iso shogirdlariga dedi:

— Yuragingiz siqilmasin. Xudoga ishoning, Menga ham ishoning! 2 Otam Xudoning uyida maskan koʻp. Shunday boʻlmaganda edi, sizlarga bularni aytib oʻtirmagan boʻlardim. Men sizlarga joy tayyorlagani ketyapman. 3 Men borib sizlarga joy tayyorlayman–u, sizlarni Oʻzim bilan olib ketgani kelaman. Toki Men boʻlgan joyda sizlar ham boʻlinglar. 4 Men boradigan joyga olib boradigan yoʻlni sizlar bilasizlar.

5 — Hazrat! — dedi Unga Toʻma, — Qayerga borishingizni bilmasak, yoʻlni qayerdan bilamiz?

6 Iso unga dedi:

— Men yoʻl, haqiqat va hayotdirman. Otaning oldiga olib boradigan Mendan boshqa yoʻl yoʻq. 7 Agar Meni tanib–bilsangiz, Otamni ham tanib–bilasizlar*. Ha, Uni bilasiz,

chunki Uni koʻrdingiz.

8 Filip Isoga dedi:

— Hazrat, bizga Otani koʻrsating, shuning oʻzi bizga kifoya!

9 — Filip, — dedi unga Iso, — Men shuncha vaqtdan beri sizlar bilan birgaman. Nahotki Meni tanib–bilmasang?! Meni koʻrgan odam Otani koʻrgan boʻladi. Shunday ekan, qanday qilib sen: “Otani bizga koʻrsating”, deyapsan? 10 Men Otada, Ota esa Menda ekanligiga nahotki ishonmasang?! Men sizlarga aytgan soʻzlarni Oʻzimdan toʻqib gapirmayapman. Aksincha, Menda yashagan Otam Men orqali Oʻz ishlarini bajarmoqda. 11 Men Otamda va Otam Menda ekanligiga ishoninglar. Agar ishonmasangizlar, hech boʻlmasa, qilgan ishlarim tufayli ishoninglar. 12 Sizlarga chinini aytayin: Menga ishongan odam Men qilgan ishlarni qiladi. Bulardan ham buyukroq ishlarni qiladi, chunki Men Otaning oldiga ketyapman. 13 Sizlar Mening nomimdan soʻragan hamma narsani Men bajo keltiraman, toki Ota Oʻz Oʻgʻli orqali ulugʻlansin. 14 Ha, sizlar Mening nomim bilan Mendan soʻragan har qanday narsani bajo keltiraman.

Muqaddas Ruhni yuborish va’dasi

15 Iso ularga dedi: “Agar Meni sevsangizlar, amrlarimga amal qilasizlar. 16 Men osmondagi Otaga murojaat qilaman va U sizlar bilan to abad qoladigan boshqa Homiyni* yuboradi. 17 Bu Homiy — Haqiqat Ruhidir. Bu dunyoga tegishli boʻlganlar Uni qabul qila olmaydilar, chunki Uni koʻrmaydilar ham, bilmaydilar ham. Sizlar esa Uni bilasizlar, chunki U sizlar bilan yashamoqda, U ichingizda boʻladi. 18 Men sizlarni yetim qoldirmayman, yana oldingizga qaytib kelaman. 19 Bir ozdan keyin dunyo Meni boshqa koʻrmaydi. Ammo sizlar Meni koʻrasizlar. Men barhayot boʻlganim uchun sizlar ham yashaysizlar. 20 Men Otamda ekanimni, sizlar Menda va Men sizlarda ekanimni oʻsha kuni anglab olasizlar. 21 Mening amrlarimni bilib, ularga amal qilgan kishi Meni sevadi. Kim Meni sevsa, Otam ham uni sevadi. Men ham uni sevaman va Oʻzimni unga ayon qilaman.”

22 Ishqariyot boʻlmagan boshqa Yahudo Isoga dedi: “Hazrat, nega Oʻzingizni dunyoga ayon qilmay, bizga ayon qilmoqchisiz?”

23 Iso unga shunday javob berdi: “Kim Meni sevsa, Mening soʻzimga amal qiladi. Otam ham uni sevadi. Biz uning oldiga kelib, u bilan birga yashaymiz. 24 Meni yaxshi koʻrmagan kishi soʻzlarimga amal qilmaydi. Sizlar eshitgan soʻz Meniki emas, balki Meni yuborgan Otanikidir.

25 Men sizlar bilan ekanman, bularni aytdim. 26 Otam Mening nomimdan yuboradigan Homiy*, ya’ni Muqaddas Ruh sizlarga hammasini oʻrgatadi. Men sizlarga aytgan hamma soʻzlarimni U yodingizga soladi.

27 Men sizlarga tinchlikni qoldiryapman. Oʻz tinchligimni sizlarga beryapman. Men berayotgan tinchlik dunyo beradigan tinchlikka oʻxshamaydi. Yuragingiz siqilmasin, qoʻrqmanglar. 28 Sizlarga aytganimni eshitdingizlar: Men ketib, yana oldingizga qaytib kelaman. Agar Meni yaxshi koʻrganingizda edi, samoviy Otaning oldiga ketayotganimdan quvongan boʻlar edingizlar. Zero, Ota Mendan ulugʻdir. 29 Bu hodisalar sodir boʻlmasdan oldin sizlarga aytdim. Toki sodir boʻlganda ishoninglar. 30 Sizlar bilan soʻzlashishga deyarli vaqtim qolmadi. Chunki bu dunyoning yovuz hukmdori* kelyapti. U Menga hukmini oʻtkaza olmaydi. 31 Lekin dunyo bilsinki, Men Otani sevaman, Ota Menga neki buyurgan boʻlsa, xuddi shuni bajaraman.

Qani, turinglar, bu yerdan keta qolaylik.”

15–BOB

Tok va uning novdalari haqida masal

1 Iso shogirdlariga dedi: “Men haqiqiy tokman, osmondagi Otam esa bog‘bondir.
2 Hosil bermaydigan har bir novdamni U kesib tashlaydi. Hosil beradigan har bir
novdani esa, yana ko‘proq hosil bersin deb, xomtok qilib tozalaydi. 3 Men sizga aytgan
so‘zim orqali sizlar allaqachon tozalanib bo‘lgansizlar. 4 Men bilan aloqada bo‘linglar,
shunda Men sizlar bilan aloqada bo‘laman. Tokka ulanmagan novda o‘z–o‘zidan hosil
berolmaydi. Shu singari, sizlar ham Men bilan aloqada bo‘lmasangizlar, hosil
berolmaysizlar.
5 Men — tok, sizlar esa novdasizlar. Agar Menda bo‘lsangizlar va Men sizlarda
bo‘lsam, ko‘p hosil berasizlar. Mensiz hech narsa qilolmaysizlar. 6 Kim Men bilan aloqani
uzsa, novda kabi, tashlab yuboriladi va quriydi. Bunday novdalarni esa yig‘ib, o‘tga
tashlab yondirishadi. 7 Agar siz Men bilan aloqada bo‘lib, so‘zlarimni qalbingizga jo
qilsangizlar, istaganingizni so‘ranglar, sizga beriladi. 8 Sizlar ko‘p hosil berib, Mening
shogirdlarim ekanligingizni isbotlaysiz. Bu orqali Otam ulug‘lanadi.

Sevgi haqida

9 Osmondagi Otam Meni qanday sevgan bo‘lsa, Men ham sizlarni shunday sevdim.
Sevgimga sodiq qolinglar. 10 Men Otamning amrlariga amal qilib, Uning sevgisiga sodiq
qolganman. Xuddi shu singari, sizlar ham, Mening amrlarimga amal qilsangizlar,
sevgimga sodiq qolasizlar.
11 Mening shodligim qalbingizni to‘ldirsin deb, sizlarga bu so‘zlarni aytdim. 12 Mening
amrim shu: Men sizlarni qanday sevgan bo‘lsam, sizlar ham bir–biringizni shunday
sevinglar. 13 Kim o‘z jonini do‘stlari uchun fido qilsa, bundan ortiq sevgi yo‘q. 14 Agar
sizlar amrlarimni bajo keltirsangizlar, Mening do‘stlarim bo‘lasizlar. 15 Men sizlarni endi
qul deb atamayman. Qul xo‘jayini nima qilishini bilmaydi. Sizlarni do‘stlarim deyman,
chunki Otamdan eshitgan hamma narsani sizlarga aytdim.
16 Sizlar Meni emas, Men sizlarni tanladim. Men sizlarni: «Borib hosil bersin, hosili
boqiy bo‘lsin», deb tanladim. Shunda Mening nomimdan Otadan nima so‘rasangizlar, U
sizlarga beradi.
17 Xullas, sizlarga amrim shu: bir–biringizni sevinglar!

Dunyoning nafrati

18 Agar dunyo sizlardan nafratlanayotgan bo‘lsa, bilingki, sizlardan ilgari Mendan
nafratlangan. 19 Sizlar bu dunyoga tegishli bo‘lganingizda edi, dunyo sizlarni o‘ziniki
kabi sevar edi. Sizlar esa bu dunyoga tegishli emassizlar. Men sizlarni bu dunyodan
tanlab oldim. Ana shu sababdan dunyo sizlardan nafratlanadi. 20 Qul o‘z xo‘jayinidan
ustun emas degan so‘zimni* eslanglar. Agar Meni quvg‘in qilgan bo‘lsalar, sizlarni ham
quvg‘in qiladilar. Agar Mening so‘zlarimga rioya qilgan bo‘lsalar, sizlarnikiga ham rioya
qiladilar.
21 Odamlar bularni sizlarga Mening nomim tufayli qiladilar. Axir, ular Meni
Yuborganni tanimaydilar. 22 Agar Men kelib, ularga gapirmaganimda edi, ular Menga
ishonmaganlari uchun gunohda ayblanmas edilar. Endi bo‘lsa gunohlarini oqlash uchun

bahona topa olmaydilar. 23 Mendan nafratlangan odam osmondagi Otamdan ham
nafratlanadi. 24 Agar Men ular orasida boshqa hech kim qilmagan mo‘jizalarni
qilmaganimda edi, ular gunohda ayblanmas edilar. Endi bo‘lsa mo‘jizalarimni ko‘rdilar–
u, Mendan ham, Otamdan ham nafratlandilar. 25 Bu esa Tavrotdagi: «Mendan sababsiz
nafrat etganlar»* degan so‘zlar bajo bo‘lishi uchun sodir bo‘ldi.
26 Men sizlarga Otamdan yuboradigan Homiy*, ya’ni Otamdan chiqadigan Haqiqat
Ruhi kelganda Men to‘g‘rimda guvohlik beradi. 27 Sizlar ham guvohlik berasizlar, chunki
boshdanoq Men bilan birga bo‘lgansizlar.

16–BOB

Muqaddas Ruhning faoliyati

1 Men bu gaplarni sizlar to‘g‘ri yo‘ldan ozmanglar, deb aytdim. 2 Sizlarni
sinagogalardan haydab yuboradilar. Hatto shunday zamon keladiki, sizlarni
o‘ldirayotgan har bir kishi bu bilan Xudoga xizmat qilyapman, deb o‘ylaydi. 3 Ular bu
ishlarni samoviy Otamni va Meni tanimaganlari uchun qiladilar. 4 Bularni sizlarga
hozirdan aytib qo‘yyapman, toki o‘sha vaqt–soat kelganda, so‘zlarimni esga olinglar.
Sizlarga bularni boshdanoq aytishimga hojat yo‘q edi, chunki O‘zim sizlar bilan birga
edim. 5 Endi esa Meni Yuborganning oldiga ketyapman. Birontangiz Mendan: «Qayerga
ketyapsan?» deb so‘ramayapsiz. 6 Bularni aytganim uchun dilingiz g‘am–qayg‘uga
botgan. 7 Ammo sizlarga haqiqatni aytaman, Mening ketishim sizlar uchun yaxshiroqdir.
Agar Men ketmasam, Homiy* kelmaydi. Agarda ketsam, Uni oldingizga yuboraman. 8 U
kelganda dunyoga gunoh, adolat va hukm to‘g‘risidagi haqiqatni ayon qiladi. 9 Gunoh
to‘g‘risidagi haqiqat shundan iboratki, odamlar Menga ishonmaydilar. 10 Adolat
to‘g‘risidagi haqiqat shuki, Ota Meni oqlaydi. Men Otaning oldiga ketyapman va sizlar
Meni boshqa ko‘rmaysizlar. 11 Hukm to‘g‘risidagi haqiqat shundan iboratki, hukm
chiqarib bo‘lingan, bu dunyoning yovuz hukmdori* mahkum qilingan.
12 Sizlarga yana aytadigan gaplarim ko‘p, lekin endi ichingizga sig‘dirolmaysizlar.
13 Haqiqat Ruhi kelib, sizlarni to‘liq haqiqat sari boshlaydi. U O‘zicha gapirmaydi, neki
eshitsa, o‘shani so‘zlab beradi, U yuz beradigan voqealar haqida sizlarga xabar qiladi.
14 U Mendan eshitgan narsalarni sizlarga ma’lum qiladi, shu orqali Meni ulug‘laydi.
15 Otaning bor narsasi Menikidir. Ana shu sababdan, Ruh Mendan eshitgan narsalarni
sizlarga ma’lum qiladi, deb aytdim. 16 Sizlar bilan birga uzoq vaqt bo‘lmayman, lekin
ko‘p o‘tmay sizlar Meni yana ko‘rasizlar*.”

Qayg‘ungiz shodlikka aylanadi

17 Shu paytda Isoning shogirdlari bir–biriga dedi: “Qiziq, U bizga o‘zi nima
aytmoqchi?! «Sizlar bilan birga uzoq vaqt bo‘lmayman, lekin ko‘p o‘tmay sizlar Meni
yana ko‘rasizlar», dedi. «Otaning oldiga ketyapman», deb aytdi. 18 «Sizlar bilan birga
uzoq vaqt bo‘lmayman» deyishi bilan nima demoqchi ekan, tushunmadik.”
19 Iso shogirdlarining savol bermoqchi bo‘lganlarini bilib, dedi: “«Sizlar bilan birga
uzoq vaqt bo‘lmayman, lekin ko‘p o‘tmay sizlar Meni yana ko‘rasizlar», deb aytgan
gapimning ma’nosini muhokama qilyapsizlarmi? 20 Sizlarga chinini aytayin: sizlar
yig‘lab, dod–faryod qilasizlar, dunyo esa quvonadi. Sizlar qayg‘urasiz, lekin qayg‘ungiz
shodlikka aylanadi. 21 Oyi to‘lgan ayol dard bilan tug‘adi. Ammo bola tug‘ilgandan keyin,
dunyoga odamzod keldi, deb ayol quvonadi. Quvonganidan u chekkan dardini unutib

yuboradi. 22 Shunga o‘xshab sizlar ham hozir g‘am–qayg‘u chekyapsizlar. Lekin Men sizlarni yana ko‘raman. Shunda yuragingiz quvonchga to‘ladi. Quvonchingizni sizlardan hech kim tortib olmaydi.

23 O‘sha kuni Mendan hech narsa so‘ramaysizlar. Sizlarga chinini aytayin: Mening nomimdan osmondagi Otamdan nima so‘rasangizlar, U sizlarga beradi. 24 Shu paytgacha Mening nomim bilan Otadan hech narsa so‘ramadingizlar. So‘ranglar, olasizlar va qalbingiz shodlikka to‘ladi.

Iso dunyodan ustun

25 Shu vaqtgacha sizlarga matallar orqali gapirib keldim. Lekin shunday vaqt keladiki, Men sizlarga Otam haqida matallar orqali emas, ochiqdan–ochiq gapiraman. 26 O‘sha kuni o‘zlaringiz Otadan istaganingizni Mening nomimdan so‘raysizlar. Mening sizlar uchun Otadan iltimos qilishimning hojati bo‘lmaydi. 27 Zotan, Otaning O‘zi sizlarni sevadi, chunki sizlar Meni yaxshi ko‘rib, Xudodan kelganimga ishondingizlar. 28 Men Otamdan chiqib, dunyoga keldim. Endi dunyoni tark etib, Otamning oldiga ketyapman.”

29 Shogirdlar Isoga shunday deyishdi:

— Mana, hozir Siz matal ishlatmay, ochiq so‘zlayapsiz. 30 Hamma narsani bilishingizni endi tushundik. Savolga ham o‘rin yo‘q. Siz Xudodan kelganingizga endi ishondik.

31 Iso dedi:

— Endi rostdan ham ishonyapsizlarmi? 32 Shunday vaqt keladiki, hatto keldi ham, sizlar tarqalib, har biringiz in–iningizga kirib ketasiz. Meni yolg‘iz qoldirasizlar. Biroq Men yolg‘iz emasman, chunki Otam Men bilandir. 33 Men tufayli xotirjam bo‘lishingiz uchun bularni sizlarga aytdim. Dunyoda qayg‘u–alam chekasizlar. Lekin dadil bo‘linglar, Men dunyoni yengdim.

17–BOB

Iso O‘z shogirdlari uchun ibodat qiladi

1 Shu gaplardan keyin Iso ko‘zlarini osmonga tikib, dedi: “Ey Ota! Vaqt–soati keldi. O‘g‘ling Seni ulug‘lashi uchun O‘g‘lingni ulug‘lagin. 2 Sen Unga butun insoniyat ustidan hokimiyat berding. Toki Unga berilgan har bir insonga U abadiy hayot ato qilsin. 3 Abadiy hayot esa Seni — yagona haq Xudoni hamda Sen yuborgan Iso Masihni tanib–bilishdan iboratdir.

4 Sen Menga topshirgan ishni tugatib, yer yuzida Seni ulug‘ladim. 5 Dunyo yaratilishidan avval Men Sening huzuringda ulug‘vor edim. Endi, ey Ota, o‘sha ulug‘vorlikni O‘z huzuringda Menga yana ato qilgin.

6 Sen dunyodan Menga bergan odamlarga Seni tanitdim. Ular Seniki edilar va Sen ularni Menga berding. Ular Sening so‘zingga amal qildilar. 7 Sen Menga bergan hamma narsa Sendan ekanligini ular endi bilib oldilar. 8 Chunki Sen Menga aytgan so‘zlaringni Men ularga aytdim. Ular so‘zlaringni qabul qilib, Men Sendan kelganimni aniq tushundilar. Meni Sen yuborganingga ishondilar.

9 Men ular uchun iltijo qilaman. Dunyo uchun emas, balki Sen Menga bergan odamlar uchun iltijo qilaman. Axir, ular Senikidir. 10 Zotan, Meniki bo‘lgan hamma — Seniki, Seniki esa Menikidir. Mening ulug‘vorligim ular orqali ayon bo‘lmoqda.

11 Men bu dunyoda ortiq qolmayman, Sening oldingga qaytib ketyapman. Ular esa bu

dunyoda qoladilar. Ey Muqaddas Ota! Menga bergan O‘z noming qudrati ila ularni omon saqla*. Toki ular ham Bizday bir bo‘lsinlar. 12 Men ular bilan birga bo‘lganimda, Menga bergan noming qudrati ila ularni omon saqladim. Ularni asradim*, birontasi yo‘qolmadi. Faqat Muqaddas bitiklarda aytilganlar* bajo bo‘lishi uchun halokatga mahkum bo‘lgan odam* nobud bo‘ldi.

13 Endi esa Sening oldingga ketyapman. Mening shodligim ularning qalbini to‘ldirsin deb, bularni hali dunyoda bo‘lganimda aytyapman. 14 Men ularga Sening so‘zlaringni aytdim. Bu dunyoga tegishli bo‘lganlar ulardan nafratlanadi. Chunki Men bu dunyodan bo‘lmaganim kabi, ular ham bu dunyodan emaslar. 15 Endi ularni dunyodan olishingni emas, balki yovuz shaytondan saqlashingni so‘rayapman. 16 Men bu dunyodan bo‘lmaganim kabi, ular ham bu dunyodan emaslar. 17 Sening kaloming haqiqatdir. Haqiqat orqali ularni O‘zing uchun ajratib olgin. 18 Sen Meni dunyoga yuborganingday, Men ham ularni dunyoga yubordim. 19 Ularni deb O‘zimni Senga bag‘ishladim, toki ular ham haqiqat orqali o‘zlarini Senga bag‘ishlasinlar.

20 Men nafaqat ular uchun iltijo qilyapman, balki ularning so‘zi orqali Menga imon keltiradiganlar uchun ham iltijo qilyapman: 21 hammalari bir bo‘lishsin. Ey Ota, Sen Menda va Men Senda bo‘lganimday, ular ham Bizda bo‘lishsin. Shu tariqa Meni Sen yuborganingga dunyo ishonsin. 22 Sen Menga ato qilgan ulug‘vorlikni ularga berdim, toki Biz bir bo‘lganimizdek, ular ham bir bo‘lishsin. 23 Men ulardaman, Sen esa Mendasan. Shunday ekan, ular mukammal birlikda bo‘lsinlar. Toki, Meni Sen yuborganingni dunyo bilsin. Meni qanday sevsang, Menikilarni ham shunday sevganingni dunyo ko‘rsin.

24 Ey Ota! Sen Menga bergan odamlar Men bilan bir joyda bo‘lishini xohlayman. Sen Menga ato qilgan ulug‘vorlikni ular ham ko‘rsin, chunki olamni yaratmasingdan oldin Sen Meni yaxshi ko‘rar eding. 25 Ey odil Ota! Dunyo Seni bilmasa ham, Men Seni bilaman. Bu odamlar ham Meni Sen yuborganingni bilib oldilar. 26 Ularga Sening kimligingni ayon qildim va ayon qilishni davom ettiraveraman. Toki, Menga bo‘lgan sevging ularning yuraklarida jo bo‘lsin, Men ham ularda bo‘layin.”

18–BOB

Iso hibsga olinadi

1 Bu so‘zlarni aytgandan so‘ng, Iso O‘z shogirdlari bilan u yerdan chiqib, Qidron soyligining* narigi tomoniga o‘tdi. O‘sha yerda bir bog‘ bor edi. Iso shogirdlari bilan boqqa kirdi. 2 Xoin Yahudo ham o‘sha joyni bilar edi, chunki Iso shogirdlari bilan u yerda tez–tez uchrashib turar edi. 3 Shunday qilib, Yahudo bir bo‘linma Rim askarlarini hamda bosh ruhoniylar va farziylar tomonidan yuborilgan Ma’bad mirshablarini* boshlab, u yerga keldi. Qo‘llarida mash’alayu fonuslar, qurol–yarog‘lar bor edi.

4 Iso boshidan kechadigan hamma narsani bilar edi. U odamlarga peshvoz chiqib, so‘radi:

— Kimni qidiryapsizlar?

5 — Nosiralik Isoni, — deb javob berishdi ular.

— O‘sha Menman, — dedi Iso.

Xoin Yahudo ularning orasida turgan edi. 6 Iso “O‘sha Menman” deyishi bilanoq ular orqaga tisarilib, yerga yiqilishdi. 7 Iso ulardan yana so‘radi:

— Kimni qidiryapsizlar?

— Nosiralik Isoni, — dedilar.
8 — Sizlarga aytdim–ku, O‘sha Menman, — dedi ularga Iso. — Agar Meni
qidirayotgan bo‘lsangizlar, bularni qo‘yib yuboringlar, ketaverishsin.
9 Shu yo‘sin Isoning ilgari: “Ota, Sen Menga bergan odamlardan hech birining
yo‘qolishiga yo‘l qo‘ymadim*” degan so‘zlari bajo bo‘ldi.
10 Shu onda Butrus* yonidagi qilichini qinidan sug‘urdi–da, oliy ruhoniyning
xizmatkoriga bir urib, o‘ng qulog‘ini kesib tashladi. Xizmatkorning ismi Malxus edi.
11 Iso Butrusga:
— Qilichingni qiniga solib qo‘y! Nahotki Men osmondagi Otam bergan azob
kosasidan* ichmasam?! — dedi.
12 Shunda Rim askarlari bilan bo‘linma qo‘mondoni va yahudiy mirshablari Isoni
qo‘lga olib, bog‘lashdi. 13 Uni oldin Xanan oldiga olib borishdi. Xanan o‘sha yilgi oliy
ruhoniy bo‘lgan Kayafasning qaynatasi edi*. 14 Yahudiylarga: “Xalq uchun bitta
odamning o‘lishi yaxshiroq”, deb maslahat bergan o‘sha Kayafas* edi.

Butrus Isodan tonadi

15 Isoning orqasidan Butrus va yana boshqa bir shogird ergashib borishar edi. Bu
shogird oliy ruhoniy Xananning* tanishi bo‘lib, Iso bilan bemalol oliy ruhoniyning
hovlisiga kirdi. 16 Butrus esa tashqarida, darvoza oldida qoldi. Oliy ruhoniyga tanish
bo‘lgan shogird keyinroq yana tashqariga chiqdi–da, darvozabon cho‘riga nimadir deb,
Butrusni ichkariga olib kirdi. 17 Shunda darvozabon cho‘ri Butrusdan:
— Siz ham u Odamning shogirdlaridan emasmisiz? — deb so‘radi.
— Yo‘q! — dedi Butrus.
18 Havo sovuq bo‘lgani uchun u yerda turgan xizmatkorlar bilan mirshablar ko‘mir
yoqib, isinayotgan edilar. Butrus ham ularning oldiga borib, isinib turdi.

Iso oliy ruhoniy Xanan oldida

19 Shu paytda oliy ruhoniy Xanan Isoni so‘roq qilayotgan edi. Shogirdlari va
ta’limotiga taalluqli savollar berdi. 20 Iso unga javob berib dedi:
— Men elu olamga ochiq so‘zladim. Har doim yahudiylar yig‘iladigan sinagogalarda
va Ma’badda ta’lim berib yurdim, hech yashirincha gap aytmadim. 21 Nega Meni so‘roq
qilyapsiz? Gaplarimni eshitgan odamlardan so‘rang. Nimalar haqida gapirganimni ular
bilishadi.
22 Iso bularni aytib bo‘lgach, yonida turgan Ma’bad mirshablaridan biri Isoning
yuziga bir shapaloq urib, dedi:
— Oliy ruhoniyga ham shunday javob berasanmi?
23 Iso bunga javoban dedi:
— Agar Men noto‘g‘ri gapirgan bo‘lsam, noto‘g‘ri joyini ko‘rsat. Agar to‘g‘ri gapirgan
bo‘lsam, nega Meni urasan?
24 Shundan keyin Xanan Isoni bog‘langan holda oliy ruhoniy Kayafas* huzuriga
yubordi.

Butrus Isodan yana tonadi

25 Butrus olov oldida isinib turarkan, kimdir undan:
— Sen ham Uning shogirdlaridan emasmisan? — deb so‘radi.
— Yo‘q! — deb tondi u.
26 Oliy ruhoniyning xizmatkorlaridan biri Butrus qulog‘ini uzib yuborgan odamning

qarindoshi edi. Bu xizmatkor Butrusga dedi:
— Seni bog‘da U bilan ko‘rdim, shekilli?
27 Butrus esa yana tondi. Naq shu payt xo‘roz qichqirdi.

Iso Pilat huzurida

28 Tong otdi. Yahudiylar Isoni Kayafas huzuridan olib chiqib, hokim Pilatning* saroyiga olib bordilar. O‘zlari esa bulg‘anishni istamay hukumat saroyiga kirmadilar*, chunki bulg‘angan odam Fisih taomini* yeya olmasdi. 29 Shu sababli Pilat tashqariga, ularning oldiga chiqdi.
— Bu Odamni nimada ayblayapsizlar? — deb so‘radi.
30 — Agar U jinoyatchi bo‘lmaganda, Uni sizning qo‘lingizga topshirmas edik, — deb javob berishdi ular.
31 — Uni olib ketib, o‘z qonuningiz bo‘yicha hukm qilaveringlar, — dedi Pilat.
— Bizga hech kimni qatl qilishga ijozat berilmagan, — deyishdi unga yahudiylar.
32 Iso O‘zining qanday o‘lishi haqida aytgan so‘zlari amalga oshishi uchun* bu voqea sodir bo‘ldi.
33 Shunda Pilat yana saroyga kirdi va Isoni chaqirtirib:
— Sen yahudiylarning Shohimisan? — deb so‘radi.
34 — O‘zingiz qiziqib so‘rayapsizmi, yoki boshqalar sizga Men to‘g‘rimda aytishdimi? — deb so‘radi Iso.
35 Pilat dedi:
— Nima, men yahudiymidim?! O‘z xalqing, bosh ruhoniylaring Seni menga topshirishdi. Sen nima ish qilib qo‘yding?
36 Iso javob berdi:
— Mening Shohligim bu dunyodan emas. Agar Shohligim bu dunyodan bo‘lganda edi, yahudiylarning qo‘liga tushmasligim uchun Mening xizmatkorlarim kurashar edilar. Biroq Mening Shohligim bu yerdan emas.
37 — Demak, Sen Shoh ekansan–da?! — dedi Pilat.
— Shoh ekanimni o‘zingiz aytdingiz, — dedi Iso. — Men haqiqat to‘g‘risida shohidlik qilmoq uchun tug‘ilganman, ana shu maqsadda olamga keldim. Haqiqat tarafida bo‘lgan har bir odam Menga quloq soladi.
38 — Haqiqat o‘zi nima? — deb so‘radi Pilat. Shunday dedi–yu, yana tashqariga, yahudiylarning oldiga chiqdi.
— Men Undan hech qanday ayb topmadim, — dedi ularga. 39 — Sizlarning bir odatingiz bor–ku, har Fisih bayramida sizlar uchun bir mahbusni ozod qilar edim. Shunga ko‘ra, sizlar uchun yahudiylarning Shohini ozod qilishimni istaysizlarmi?
40 — Uni emas, Barabbasni ozod qiling! — deb baqirdi ular.
Barabbas esa isyonda ishtirok etgandi.

19–BOB

Iso o‘limga hukm qilinadi

1 Shundan keyin Pilat* Isoni olib ketishni va qamchilatishni buyurdi. 2 Rim askarlari tikanlardan toj o‘rib, Isoning boshiga qo‘ydilar, ustiga safsar to‘n kiydirdilar. 3 Isoning oldiga qayta–qayta kelib:
— Yashavor–e, yahudiylarning Shohi! — deb, Uni tarsakilar edilar.

4 Pilat yana tashqariga chiqib, yahudiylarga xitob qildi:
— Mana, Uni oldingizga chiqaryapman, bilib qoʻyinglar, men Undan hech qanday ayb topolmadim!
5 Shu payt boshida tikanli toj, egnida safsar toʻn bilan Iso tashqariga chiqdi.
— Mana, u Odam! — dedi Pilat ularga. 6 Bosh ruhoniylar va Maʼbad mirshablari* Isoni koʻrib, baqirishdi:
— Xochga mixlansin! Xochga mixlansin!
— Uni sizlar olib xochga mixlanglar! Men Undan hech qanday ayb topolmadim, — dedi Pilat ularga. 7 Yahudiylar unga javoban:
— Bizda qonun bor, qonunimizga koʻra*, U oʻlishi kerak, chunki U Oʻzini Xudoning Oʻgʻli* deb aytyapti, — dedilar.
8 Pilat buni eshitgach, yuragi orqaga tortib ketdi. 9 Qaytadan hukumat saroyiga kirib, Isodan:
— Sen qayerdansan? — deb soʻradi. Iso unga javob bermadi.
10 — Menga javob bermaysanmi?! — dedi Pilat. — Seni ozod qilishga yoki xochga mixlashga menda hokimiyat borligini bilmaysanmi?!
11 Iso javob berdi:
— Agar Xudo yoʻl qoʻymaganda edi, siz Menga hech qanday hukmingizni oʻtkaza olmas edingiz. Shu sababdan Meni sizning qoʻlingizga tutib bergan odamning gunohi sizning gunohingizdan kattaroq.
12 Shundan keyin Pilat Isoni qoʻyib yuborishga chora izlay boshladi. Ammo yahudiylar shunday deb qichqirishdi:
— Agar Uni qoʻyib yuborsangiz, siz Qaysarning* doʻsti emassiz. Oʻzini shoh deydigan har bir kishi Qaysarga qarshi chiqqan boʻladi!
13 Pilat bu soʻzni eshitgach, Isoni tashqariga olib chiqdi va Tosh supa deb nom olgan joydagi hukm kursisiga oʻtirdi (bu joyning oramiycha* nomi Gabbata edi). 14 Oʻsha kuni Fisih bayrami* arafasi, tush mahali* edi. Pilat yahudiylarga xitob qildi:
— Mana, Shohingiz!
15 — Yoʻq qiling Uni, yoʻq qiling! Xochga mixlang! — deb baqirdi ular.
— Sizlarning Shohingizni xochga mixlab qoʻyaymi? — deb soʻradi Pilat.
— Qaysardan boshqa shohimiz yoʻq, — deyishdi bosh ruhoniylar.
16 Oxiri Pilat Isoni xochga mixlash uchun askarlariga topshirdi. Ular esa Isoni olib ketdilar.

Isoni xochga mixlashadi

17 Iso Oʻz xochini* koʻtarib, shahar tashqarisidagi Bosh suyagi degan joyga keldi (bu joyning oramiycha nomi Goʻlgota edi). 18 U yerda Isoni xochga mixlab qoʻydilar. U bilan birga yana ikkita odamni ham xochga mixladilar. Ularning biri Isoning bu tomonida, boshqasi u tomonida, Iso esa oʻrtada edi. 19 Pilat bir lavhaga: “Yahudiylarning Shohi Nosiralik Iso” degan soʻzlarni yozib, lavhani xochga ostirib qoʻydi.
20 Iso xochga mixlangan joy shaharga yaqin boʻlgani uchun, bu lavhani koʻp yahudiylar oʻqidilar. Lavha oramiy, lotin va yunon tillarida yozilgan edi. 21 Yahudiy bosh ruhoniylari esa Pilatga borib shunday dedilar:
— “Yahudiylarning Shohi” deb yozmang, balki “Bu Odam yahudiylarning Shohi boʻlishga daʼvogarlik qilgan” deb yozing.

22 — Men qanday yozgan bo‘lsam, shundayligicha qolsin, — dedi Pilat.
23 Askarlar Isoni xochga mixlab bo‘lib, Uning kiyimlarini oldilar. Kiyimlarini to‘rt
bo‘lakka bo‘lib, har bir askarga berdilar. Ichki ko‘ylagini ham oldilar. Ichki ko‘ylak
boshdan–oyoq choksiz bir to‘qima edi. 24 Askarlar bir–biriga:
— Buni yirtmaylik, bu uchun qur’a tashlaymiz, kimga tushsa, o‘shaniki bo‘lsin, —
deyishdi.
Shu tariqa Muqaddas bitiklardagi quyidagi so‘zlar bajo bo‘ldi:

> “Kiyimlarimni ular o‘zaro bo‘lishgan,
> Libosim uchun qur’a tashlashgan.”*

Askarlar xuddi shunday qildilar.
25 Isoning xochi yonida Uning onasi va xolasi, Klopasning xotini Maryam hamda
Magdalalik* Maryam turar edilar. 26 Iso onasini va onasi yonida turgan sevikli
shogirdini* ko‘rdi. Iso onasiga:
— Mana bu sizning o‘g‘lingiz! — dedi. 27 Keyin shogirdiga qarab:
— Mana bu sening onang! — dedi.
O‘sha vaqtdan boshlab shogird Maryamni o‘z uyiga oldi.

Iso jon beradi

28 Iso hamma ishlarini tugatganini bilardi. Muqaddas bitiklar* bajo bo‘lsin deb, U:
— Chanqadim! — dedi.
29 Bu yerda arzon sharobga* to‘la bir idish turgan edi. Askarlar sharobga shimgichni
botirdilar–da, tayoqning* uchiga ilib, Isoning og‘ziga olib bordilar. 30 Iso sharobni tatib
ko‘rgach:
— Amalga oshdi! — dedi–yu, boshini egib, jon berdi.
31 O‘sha kuni Shabbat arafasi edi. Ertangi Shabbat kuni nihoyatda tabarruk kun*
hisoblangani uchun, yahudiylar jasadlarni xochda qoldirishni istamadilar. Ular Pilatning
oldiga borib, xochga mixlangan odamlarning boldirlarini sindirib tashlab*, xochdan
tushirishni so‘radilar. 32 Shunda askarlar borib, Iso bilan birga xochga mixlangan
birinchi, so‘ngra ikkinchi odamning boldirlarini sindirib tashladilar. 33 Isoning oldiga
kelib, Uning o‘lib bo‘lganini ko‘rdilar. Shuning uchun boldirlarini sindirmadilar. 34 Lekin
askarlardan biri Isoning biqinini nayza bilan teshdi, shu zahoti Uning biqinidan qon
bilan suv oqib chiqdi. 35 Bu hodisani ko‘rgan kishi*, sizlar ham ishoninglar deb, guvohlik
berib kelmoqda. Uning guvohligi haqiqatdir, u haqiqat aytayotganini biladi. 36 Bu hodisa
Muqaddas bitiklardagi: “Bironta ham suyagi sindirilmaydi”* degan so‘zlar amalga
oshishi uchun ro‘y berdi. 37 Muqaddas bitiklarning boshqa bir joyida shunday deyilgan:
“Ular o‘zlari nayza sanchgan Odamga qaraydilar.”*

Iso dafn qilinadi

38 Arimateyalik* Yusuf Isoning shogirdi edi, lekin yahudiylardan qo‘rqqani uchun
buni yashirib yurar edi. Iso o‘lgandan keyin Yusuf Pilatdan Isoning jasadini xochdan
tushirib olishni iltimos qildi. Pilat ijozat berdi. Shunda Yusuf borib, Isoning jasadini
xochdan tushirib oldi. 39 Ilgari Isoning oldiga kechasi borgan Nikodim* ham Yusuf bilan
birga edi. Nikodim ikki pud* mirra* va aloe moylarining qorishmasini olib kelgandi.
40 Ular ikkovi Isoning jasadini olib, yahudiylarning dafn odatlariga ko‘ra, bu muattar

moddalarni surtib, Uni kafanladilar. 41 Iso xochga mixlangan joyning yaqinida bir bog‘ bor edi. U bog‘da hali hech kim qo‘yilmagan yangi bir qabr bor edi. 42 O‘sha kun yahudiylarning Shabbat arafasi bo‘lgani uchun ular, bu joy yaqinroq, deb Isoning jasadini o‘sha qabrga qo‘ydilar.

20–BOB

Iso tiriladi

1 Yakshanba kuni erta saharda, kun yorishmasdan, Magdalalik* Maryam qabrning oldiga kelib, qabr og‘zidagi toshning ag‘darilganini ko‘rdi. 2 So‘ng u yugurib, Butrus* va Isoning sevikli shogirdi* oldiga borib dedi:

— Hazratimizning jasadini qabrdan olib ketishibdi. Uni qayerga qo‘yishganini bilmaymiz.

3 Butrus va boshqa shogird qabr tomon jo‘nashdi. 4 Ikkovi birga yugurib ketishdi. Ammo u shogird Butrusdan tezroq yugurib, qabrga birinchi bo‘lib yetib keldi. 5 U engashib ichkariga qaradi–da, u yerda yotgan kafanni ko‘rdi. Lekin qabrga kirmadi. 6 Uning orqasidan Butrus yetib kelib, qabrga kirdi. U yerda yotgan kafanni 7 va Isoning boshiga o‘ralgan ro‘molni ko‘rdi. Ammo ro‘mol kafan bilan birga emas, alohida joyga yig‘ishtirib qo‘yilgan edi. 8 Shunda avval kelgan shogird ham qabrga kirdi. Ko‘rgandan keyingina ishonch hosil qildi. 9 Chunki ular Muqaddas bitiklardagi, Iso o‘likdan tirilishi kerak degan so‘zlarni shu paytgacha tushunmagan edilar.

Iso Maryamga zohir bo‘ladi

10 Shundan so‘ng shogirdlar yana o‘z uylariga qaytib ketdilar. 11 Maryam esa qabrning tashqarisida turganicha, yig‘lar edi. Yig‘layotib, bir egilib qabr ichiga qaradi. 12 Shunda oq kiyim kiygan ikki farishtani ko‘rib qoldi. Biri Isoning jasadi yotgan joyning bosh tomonida, ikkinchisi esa oyoq tomonida o‘tirgan edi. 13 Ular Maryamga:

— Ey ayol, nega yig‘layapsan? — deyishdi.

— Hazratimning jasadini olib ketishibdi, Uni qayerga qo‘yishganini bilmayman, — dedi u. 14 Shunday dedi–yu, orqasiga burilib, u yerda turgan Isoni ko‘rdi. Lekin Uning Iso ekanligini bilmadi.

15 — Ey ayol, nega yig‘layapsan? Kimni qidiryapsan? — deb so‘radi undan Iso. Maryam Uni bog‘bon deb o‘yladi. Unga shunday dedi:

— Taqsir, agar Uni siz olib ketgan bo‘lsangiz, qayerga qo‘yganingizni menga ayting, men borib Uni olay.

16 Iso unga:

— Maryam! — dedi.

Maryam Isoga qayrilib qaradi–da, oramiychalab*:

— Ravvuniy! — dedi. (Ravvuniy “ustozim” demakdir.)

17 — Meni ushlab turma! — dedi Iso Maryamga. — Men samoviy Otaning oldiga chiqib ketyapman. Sen borib birodarlarimga gaplarimni yetkaz: “Men Otamning oldiga chiqib ketyapman. U sizlarning ham Otangizdir. U Mening Xudoyim va sizlarning Xudoyingizdir.”

18 Shunda Magdalalik Maryam shogirdlarning oldiga borib:

— Men Rabbimiz Isoni ko‘rdim! — dedi. So‘ng Isoning unga aytgan gaplarini ularga yetkazdi.

Iso shogirdlariga zohir bo‘ladi

19 O‘sha yakshanba kuni oqshomda shogirdlar to‘plangan edilar. Ular yahudiylardan
qo‘rqib, uyning eshiklarini qulflab olgan edilar. Shu payt Iso keldi, o‘rtalarida turib
shogirdlariga:
— Sizlarga tinchlik bo‘lsin! — dedi. 20 So‘ng ularga qo‘llarini* va biqinini ko‘rsatdi.
Shogirdlar Rabbimiz Isoni ko‘rib, xursand bo‘lib ketdilar.
21 Iso yana ularga dedi:
— Sizlarga tinchlik bo‘lsin! Osmondagi Otam Meni dunyoga yuborgani singari, Men
ham sizlarni dunyoga yuboryapman.
22 Shunday deb, ularning ustiga pufladi–da:
— Muqaddas Ruhni qabul qilinglar, — dedi. 23 — Sizlar kimning gunohlarini
kechirsangizlar, u kechiriladi. Kimning gunohlarini kechirmasangizlar, u kechirimsiz
qolaveradi.

Iso bilan To‘ma

24 Iso kelganda o‘n ikki shogirddan biri To‘ma, ya’ni Didimus* shogirdlar orasida yo‘q
edi. 25 Boshqa shogirdlar unga:
— Biz Rabbimiz Isoni ko‘rdik, — deyishdi. To‘ma ularga shunday dedi:
— Uning qo‘llaridagi mix chandiqlarini o‘zim ko‘rmagunimcha, mix chandiqlariga
barmog‘imni tekkizmagunimcha, biqiniga qo‘lim bilan tegib ko‘rmagunimcha
ishonmayman.
26 Keyingi yakshanba kuni Isoning shogirdlari yana uyda to‘plangan edilar. Bu safar
To‘ma ham ular bilan birga edi. Uyning eshiklari qulf edi. Shunga qaramay Iso kirdi,
o‘rtalarida turib:
— Sizlarga tinchlik bo‘lsin! — dedi. 27 Keyin To‘maga qarab:
— Barmog‘ingni bu yoqqa tekkiz! Qo‘llarimni ko‘r. Qo‘lingni uzatib, biqinimga tegib
ko‘r. Ikkilanishni bas qil, ishon! — dedi. 28 To‘ma Isoga:
— Yo Rabbim, Xudoyim! — dedi. 29 Iso unga shunday dedi:
— Sen Meni ko‘rganing uchun ishonding. Meni ko‘rmay ishonganlar naqadar
baxtlidir!

Kitobning mohiyati

30 Isoning bu kitob tarkibiga kiritilmagan yana ko‘p mo‘jizali alomatlariga shogirdlar
guvoh bo‘lganlar. 31 Kitobga kiritilgan mo‘jizalar esa sizlar uchun yozilgan. Toki sizlar
Isoning Masih, Xudoning O‘g‘li* ekanligiga ishonib, bu imoningiz tufayli hayotga ega
bo‘linglar.

21–BOB

Iso ko‘l bo‘yida zohir bo‘ladi

1 Bu hodisalardan keyin Iso Jalila ko‘li* bo‘yida yana shogirdlariga zohir bo‘ldi. Bu
shunday ro‘y berdi: 2 Butrus*, To‘ma, ya’ni Didimus*, Jaliladagi Ka’na qishlog‘idan
bo‘lgan Natanil, Zabadiyoning o‘g‘illari* va boshqa ikki shogird — hammalari birga
yig‘ilgan edilar. 3 Butrus yonidagilarga:
— Men ketdim, baliq tutaman, — dedi.
— Biz ham sen bilan boramiz, — deyishdi ular. So‘ng qayiqqa tushib, jo‘nab ketishdi.

Lekin oʻsha kecha hech narsa tutisholmadi.
4 Kun yorishganda, Iso qirgʻoqda turgan edi. Shogirdlari esa Uning Iso ekanligini
bilmadilar.
5 — Yigitlar, baligʻingiz bormi? — deb soʻradi Iso ulardan.
— Yoʻq, — deb javob berdi ular.
6 — Toʻringizni qayiqning oʻng tomoniga tashlanglar, shunda tutasizlar, — dedi Iso.
Ular toʻrni tashladilar. Baliq koʻpligidan uni tortib ololmadilar. 7 Shu payt Isoning
sevikli shogirdi*:
— Bu Rabbimiz Iso–ku! — dedi Butrusga. Butrus buni eshitishi bilanoq, uzun
koʻylagining etaklarini beliga qistirdi–yu, koʻlga sakradi. 8 Boshqa shogirdlar esa baliq
toʻla toʻrni sudragancha, qayiqda keldilar. Ular quruqlikka yaqin, taxminan ikki yuz
tirsak* masofada edilar. 9 Qirgʻoqqa chiqqanlarida, nonni va yongan koʻmir ustida
pishayotgan baliqni koʻrdilar.
10 Iso ularga:
— Hozir tutgan baligʻingizdan olib kelinglar, — dedi. 11 Butrus borib, toʻrni qirgʻoqqa
tortib chiqardi. Toʻr katta baliqlarga toʻla edi. Hammasi boʻlib 153 ta baliq bor edi.
Baliqlar koʻpligiga qaramasdan, toʻr yirtilmadi.
12 Iso shogirdlariga:
— Qani, kelinglar, nonushta qilib olinglar, — dedi. Ulardan hech biri: “Siz kimsiz?”
deb soʻrashga botinolmadi, chunki Uning Rabbimiz Iso ekanligini bilar edilar. 13 Iso
ularning oldiga borib, nondan berdi, baliqdan ham berdi.
14 Shu yoʻsin Iso tirilgandan keyin uchinchi marta shogirdlariga zohir boʻldi.

Isoning Butrusga savoli

15 Iso nonushtadan keyin Shimoʻn Butrusdan* soʻradi:
— Yuhanno* oʻgʻli Shimoʻn, sen Meni ulardan koʻproq yaxshi koʻrasanmi?
— Ha, Rabbim! Men Seni yaxshi koʻrishimni Oʻzing bilasan–ku, — dedi Unga Butrus.
— Qoʻzilarimni oʻtlat, — dedi unga Iso.
16 Iso ikkinchi marta Butrusdan soʻradi:
— Yuhanno oʻgʻli Shimoʻn, sen Meni yaxshi koʻrasanmi?
— Ha, Rabbim! Seni yaxshi koʻrishimni Oʻzing bilasan–ku, — dedi Butrus Unga.
— Qoʻylarimni boq, — dedi unga Iso.
17 Soʻng uchinchi marta Butrusdan soʻradi:
— Yuhanno oʻgʻli Shimoʻn, sen Meni yaxshi koʻrasanmi?
Iso uchinchi marta yana shu savolni bergani uchun Butrus xafa boʻldi.
— Rabbim! Sen hamma narsani bilasan, men Seni yaxshi koʻrishimni ham bilasan, —
dedi Butrus. Iso unga shunday dedi:
— Qoʻylarimni oʻtlat! 18 Senga chinini aytayin: yosh boʻlganingda kamaringni oʻzing
bogʻlar eding, xohlagan joyingga borar eding. Qariganingda esa qoʻllaringni uzatasan,
boshqa birov seni bogʻlaydi, seni xohlamagan joyingga olib boradi.
19 Iso bu soʻzlar orqali Butrusning qay yoʻl bilan oʻlib, Xudoni ulugʻlashini bildirdi*.
Soʻngra unga:
— Ortimdan yur! — dedi.

Iso va Uning sevikli shogirdi

20 Butrus burilib, Isoning sevikli shogirdi* orqalaridan ergashib kelayotganini koʻrdi.

Bu shogirdi kechki ziyofatda engashib, Isodan: “Hazrat, Sizni kim tutib beradi?” — deb so‘ragan edi. 21 Butrus uni ko‘rib, Isodan:

— Rabbim, uning taqdiri nima bo‘ladi? — deb so‘radi. 22 Iso unga:

— Men kelgunimgacha uning tirik qolishini istasam, bundan senga nima?! Sen ortimdan yuraver, — dedi.

23 Shunday qilib, imonlilar orasida bu shogird o‘lmaydi degan gap–so‘z tarqalib ketdi. Holbuki, Iso uni o‘lmaydi, demagandi. U faqat: “Agar Men kelgunimgacha uning tirik qolishini istasam, bundan senga nima?!” — deb aytgan edi.

Xotima

24 Ana shu shogird bu hodisalarning hammasiga guvoh bo‘lib, ularni yozib olgan. Uning guvohligi haqiqat ekanligini bilamiz. 25 Iso yana ko‘p boshqa ishlar qilgan. Bular birma–bir yozib chiqilganda edi, yozilgan kitoblar olamga ham sig‘mas edi, deb o‘ylayman*.

IZOHLAR

Xudoning O‘g‘li — Iso Masihning unvoni. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi XUDONING O‘G‘LI iborasiga qarang.

1:1 *Kalom* — yunoncha matnda *logos*. Bu yunoncha so‘z yahudiylar uchun ham, yunonlar uchun ham muhim ahamiyatga ega. Yunon faylasuflari bu so‘zni ishlatganlarida nafaqat og‘izdan chiqqan so‘zni, balki hali tilga olinmagan, xayoldagi fikrni ham nazarda tutganlar. Ular bu so‘zni koinotga nisbatan ishlatganlarida, butun koinotni boshqarib turgan, borliq asosidagi ilohiy ongni nazarda tutganlar. Ba’zi yunonlar *logos* so‘zini koinot manbai va ijodkori bo‘lgan bosh Xudoga nisbatan ishlatganlar. Ko‘p yunonzabon yahudiylar *logos* so‘zini Xudoning donoligiga yoki Xudoning kalomiga nisbatan ishlatganlar, ba’zan esa Xudoning bu dunyodagi ishlarini amalga oshiradigan ilohiy zot timsolida tasavvur qilganlar. Shulardan ko‘rinib turibdiki, Yuhanno bu o‘rinda yahudiylarga ham, yunonlarga ham tushunarli bo‘lgan so‘zni ishlatgan.

1:3 *Butun borliq Kalom orqali yaratilgan* — Zabur 32:6, 9, Kolosaliklar 1:15-17, Ibroniylar 1:2-3 ga qarang.

1:9 *Har bir odamni yoritadigan haqiqiy Nur dunyoga kelayotgan edi* — yoki *Bu Nur haqiqiy Nur edi, U dunyoga kelgan har bir odamni yoritardi*. Bu o‘rindagi yunoncha gapni yuqoridagiday ikki xil ma’noda tushunish mumkin, ammo kitobning keyingi oyatlaridan ko‘rish mumkinki, muallif *dunyoga kelayotgan* iborasi ostida, haqiqiy Nurga, ya’ni Iso Masihga ishora qilgan (12:46 ga qarang, yana 6:14, 9:39, 11:27, 16:28 ga qarang).

1:13 *…Tabiiy yo‘l bilan emas…* — yunoncha matnda *…Qondan emas…*. Ota–onadan tug‘ilishga ishora.

1:14 *yashadi* — bu o‘rinda ishlatilgan yunoncha so‘z chodir o‘rnatish ma’nosini ifodalab, Eski Ahddagi Muqaddas chodirni, Xudo O‘z xalqi orasida yashaydigan joyni eslatadi (Chiqish 25:8 ga qarang).

1:14 *Ota* — Xudoga ishora. Bu unvon Muqaddas Kitobdagi boshqa hamma kitoblarga qaraganda Yuhanno kitobida ko‘p ishlatilgan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi XUDONING NOMLARI iborasi ostida berilgan OTA so‘ziga qarang.

1:14 *O‘g‘il* — Iso Masihning unvoni. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi XUDONING O‘G‘LI iborasiga qarang.

1:18 *Samoviy Otaning bag‘ridagi, Aslida Xudo bo‘lgan yagona O‘g‘il* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *samoviy Otaning bag‘ridagi yagona O‘g‘il*.

1:19-20 *ruhoniy* — Quddusdagi Ma’badda xizmat qiladigan e’tiborli din rahnamosi. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi RUHONIY so‘ziga qarang.

1:19-20 *levi* — Quddusdagi Ma’badda ruhoniyga xizmat qilishda yordam beradigan odam. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi LEVI, LEVILAR so‘ziga qarang.

1:19-20 *Masih* — bu unvonni yahudiylar kelajakda ularni dushmanlaridan qutqaradigan va butun yer yuzidagi xalqlar ustidan hukmronlik qiladigan insonga nisbatan ishlatganlar. Eski Ahdda Masihning qiladigan ishlari haqida bashoratlar

yozilgan. Yangi Ahdga ko‘ra Rabbimiz Iso o‘sha Masihdir. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi MASIH so‘ziga qarang.

1:21 *Ilyos* — Eski Ahd davrida yashagan eng buyuk payg‘ambarlardan biri. Yahudiylar Ilyosning qaytib kelishini intizorlik bilan kutishardi (Malaki 4:5-6 ga qarang).

1:21 *Biz kutayotgan payg‘ambarmisan?* — Muso Isroil xalqiga, Xudo sizlar uchun menga o‘xshagan payg‘ambar yuboradi, bu payg‘ambar o‘z orangizdan kelib chiqadi, deb aytgan edi (Qonunlar 18:15-19 ga qarang). Ko‘p yahudiylar bu payg‘ambar dunyoning so‘nggi damlarida kelib, ularni zolimlardan qutqarishiga ishonardilar. Musoning bashorati Iso Masihda ro‘yobga chiqdi (Havoriylar 3:17-26 ga qarang).

1:23 *Ishayo payg‘ambar aytganiday…* — muallif bu o‘rinda Ishayo 40:3 ning qadimiy yunoncha tarjimasidan foydalangan.

1:24 *Farziylar* — yahudiylarning muhim bir diniy mazhabi. Farziylar Tavrot qonunlariga qat’iy rioya qilardilar, og‘zaki ravishda tarqalgan urf–odatlarga hamda poklanish udumlariga izchil amal qilardilar. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi FARZIY so‘ziga qarang.

1:24 *Farziylar tomonidan yuborilgan bu odamlar…* — yoki *Ba’zi farziylar ham yuborilgan edilar. Ular….*

1:27 *U mening ortimdan kelyapti…* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *U mening ortimdan kelyapti, lekin mendan ilgari bor bo‘lgan*.

1:28 *Baytaniya* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *Baytavara*. Bu oyatdagi Baytaniya qishlog‘i Maryam va Martaning akasi Lazar yashagan, Quddus yonidagi Baytaniya emas (11:1 ga qarang).

1:34 *Xudoning O‘g‘li* — Iso Masihning unvoni. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi XUDONING O‘G‘LI iborasiga qarang.

1:38 *Ravviy* — oramiycha so‘z. Ba’zi kitobxonlar oramiy tilini bilmaganlari uchun, muallif mana shu so‘zning ma’nosini tushuntirib o‘tgan. Kitobning boshqa joylarida oramiycha *Ravviy* so‘zi *Ustoz* deb tarjima qilingan.

1:39 *soat to‘rt* — yunoncha matnda *o‘ninchi soat*, yahudiylarning urf–odatiga ko‘ra, kunning bu payti o‘sha soat bilan belgilanar edi.

1:40 *Shimo‘n* — yunoncha matnda *Shimo‘n Butrus*. Butrus ismini unga Iso Masih bergan edi (shu bobning 42–oyatiga qarang). Ba’zan u haqda so‘z yuritilganda, ikkala ism ham birgalikda ishlatiladi.

1:42 *Yuhanno* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida bu ismning boshqa varianti *Yunus*.

1:42 *Kifas* — oramiycha ism.

1:45 *Natanil* — an’anaga ko‘ra, Bartolomeyning yana bir ismi. Bartolomey o‘n ikki havoriydan biri edi (Matto 10:3, Mark 3:18, Luqo 6:14 ga qarang). Bu oramiycha ismning ma’nosi *Tolomey o‘g‘li* deganidir.

1:45 *…Tavrot kitobida…payg‘ambarlar…o‘zlarining bitiklarida…* — odatda yahudiylar, Eski Ahd to‘plami uch qismdan iborat, deb aytadilar. Bu uch qism quyidagilardir: Tavrot (Musoning qonuni degan nom bilan ham yuritiladi), Payg‘ambarlar bitiklari (uning

tarkibiga ba’zi tarixiy kitoblar ham kirgan) va Bitiklar (Zabur bu qismning birinchi kitobidir). Yahudiylar ba’zan dastlabki ikki qism “Tavrot va Payg‘ambarlar bitiklari” deganda butun Eski Ahd to‘plamini nazarda tutadilar.

1:47 *…Isroilning haqiqiy avlodi…hiyla degan narsani bilmaydi* — bu o‘rinda Yoqub va hiyla so‘zlariga so‘z o‘yini ishlatilgan bo‘lishi mumkin, chunki Yoqub ismi “hiyla, yolg‘on” ma’nosi bildiradigan so‘zdan kelib chiqqan (Ibtido 25:26 izohiga qarang). Tarjimada aytib o‘tilgan Isroil Yoqubning ikkinchi ismi edi. Xudo Yoqubga Isroil deb ism berishdan oldin, Yoqub akasi Esovni va o‘z otasi Is’hoqni aldagan edi.

1:51 *Inson O‘g‘li* — Iso Masih ko‘pincha O‘ziga nisbatan ishlatgan unvon. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi INSON O‘G‘LI iborasiga qarang.

1:51 *…sizlar…ko‘rasizlar* — yahudiylarning bobokaloni Yoqub akasi Esovdan qochayotgan paytda shunga o‘xshagan tush ko‘rgan edi (Ibtido 28:10-15 ga qarang). Bu oyatda Iso O‘zining hokimiyati osmondan berilganini, U orqali Xudo O‘zini yer yuzida tanitishini va Yoqubga tushida bergan va’dasini bajarishini nazarda tutadi.

2:6 *o‘n–o‘n ikki chelak* — yunoncha matnda *ikki–uch o‘lchov*, taxminan 80-120 litrga to‘g‘ri keladi.

2:13 *Fisih bayrami* — Fisih ziyofatiga va undan keyin yetti kun davomida nishonlanadigan Xamirturushsiz non bayramiga ishora. Bu bayramlar Isroil xalqining Misrdagi qullikdan ozod bo‘lishi munosabati bilan nishonlanar edi (Chiqish 12:1-42, 13:3-10 ga qarang).

2:14 *sarroflar* — pul ayirboshlovchilar. Ular Rim va Yunon tangalarini yahudiylarning shaqaliga almashtirganlar. Ma’bad solig‘ini to‘lash va qurbonlik qilinadigan hayvonlarni sotib olish uchun shaqal ishlatilgan.

2:17 Zabur 68:10 ga qarang.

2:20 *Bu Ma’bad qirq olti yildan beri qurilyapti…* — Buyuk Hirod (miloddan oldingi 37-4 yillarda hukmronlik qilgan) Ma’badni miloddan oldingi 19 yilda qayta qurishni boshlagan va qurilish ishlari Iso Masih davrida ham davom etayotgan edi.

3:3 *qaytadan* — bu o‘rinda ishlatilgan yunoncha so‘z *qaytadan* yoki *yuqoridan* degan ma’nolarni bildiradi. Muallif bu ikkala ma’noni ham nazarda tutgan bo‘lishi mumkin. Bu yunoncha so‘z shu bobning 7, 31–oyatlarida ham ishlatilgan.

3:3 *Xudoning Shohligi* — Xudoning hozirgi paytda insonlar hayotidagi hukmronligi va oxiratda har bir yaratilgan mavjudotning yangilanishiga ishora. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi XUDONING SHOHLIGI iborasiga qarang.

3:13 *Osmondan tushgan…* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *osmonda istiqomat qiladigan va osmondan tushgan*.

3:14 *bronza ilon* — Sahroda 21:4-9 ga qarang.

3:14 *Inson O‘g‘li ham xuddi shunday yuqoriga ko‘tarilishi kerak…* — Isoning xochdagi o‘limiga ishora (12:31-33 ga qarang).

3:15 *…imonga kelgan har bir kishi U orqali abadiy hayotga ega bo‘ladi* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *Unga ishongan hech bir kishi halok bo‘lmaydi, balki abadiy hayotga ega bo‘ladi*.

3:16 *Zero…* — shu bobning 16-21–oyatlari Isoning gaplari bo‘lishi mumkin yoki Yuhanno Isoning so‘zlaridan xulosa chiqarib yozayotgan bo‘lishi mumkin.

3:23 *…Saleym…Eynon yeri…* — ularning qayerda joylashgani bahsli.

3:24 *…Yahyo zindonga tashlanishdan oldin…* — Mark 6:17-18 ga qarang.

3:31 *Yuqoridan…* — shu bobning 31-36–oyatlari Yahyoning gaplari bo‘lishi mumkin yoki Yuhanno Yahyoning so‘zlaridan xulosa chiqarib yozayotgan bo‘lishi ham mumkin.

3:36 *Xudoning O‘g‘li* — Iso Masihning unvoni. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi XUDONING O‘G‘LI iborasiga qarang.

4:5 *Sixar…Yoqub* — Sixar shahri Shakam yaqinida bo‘lgan. Ibrohimning nabirasi Yoqub Shakamga yaqin joydan yer sotib olgan edi (Ibtido 33:18-19 ga qarang). Keyinchalik bu yer Yusufning avlodlariga ulush qilib berilgan (Yoshua 24:32 ga qarang).

4:6 *tush payti* — yunoncha matnda *oltinchi soat*, yahudiylarning urf–odatiga ko‘ra, kunning bu payti o‘sha soat bilan belgilanar edi.

4:9 *…Samariyalik ayol bo‘lsam, qanday qilib mendan suv so‘rashga jur’at etdingiz?!* — yahudiylar Samariyaliklardan hazar qilishar edi. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi SAMARIYALIK so‘ziga qarang. Erkak kishining begona ayol bilan gaplashishi ham odatiy hol emas edi (shu bobning 27–oyatiga qarang).

4:19 *Hazrat* — yunoncha matnda *kurios*. Bu o‘rinda obro‘–e’tiborli insonga nisbatan ishlatiladigan so‘z sifatida qo‘llangan (shu bobning 11, 15–oyatlarida *taqsir* so‘zi bilan tarjima qilingan). To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi XUDONING NOMLARI iborasi ostida berilgan RABBIY, RABBIM, RABBIMIZ… so‘ziga qarang.

4:20 *bu tog‘* — Garizim tog‘i nazarda tutilgan. Xudoga sajda qilishga eng munosib joy qayerda ekanligi haqida yahudiylar va Samariyaliklar o‘rtasida anchadan beri qizg‘in bahs borardi. Samariyaliklarning aytishi bo‘yicha, Xudoga sajda qilish uchun eng munosib bo‘lgan joy Quddusdagi Sion tog‘i emas, balki ular tabarruk hisoblagan Garizim tog‘idir. Ayol “ota–bobolarimiz” deganda o‘sha yerda qurbongoh qurgan va Xudoga sajda qilgan Ibrohim va Yoqubni nazarda tutgan (Ibtido 12:6-7, 33:18-20 ga qarang). Samariyaliklarning Tavrotiga ko‘ra, Muso xalqqa Ebal tog‘ida emas, balki Garizim tog‘ida qurbongoh qurishni buyurgandi (Qonunlar 27:2-7 ga qarang). Samariyaliklar o‘zlarining bu qarashlarini mana shu oyatlar bilan asoslamoqchi bo‘lardilar. Ular taxminan miloddan oldingi 400 yilda Garizim tog‘ida ma’bad qurganlar. Bu ma’badni yahudiylar taxminan miloddan oldingi 128 yilda buzib tashlaganlar. Buning oqibatida yahudiylar va Samariyaliklar orasidagi dushmanlik yanada kuchaygan.

4:22 *Sizlar…kimga sajda qilayotganingizni bilmaysizlar…* — Samariyaliklarning Xudo haqidagi tushunchasi cheklangandi, chunki ular Eski Ahdni to‘lig‘icha qabul qilmasdilar. Ularning Muqaddas bitiklari faqatgina Tavrotdan iborat edi.

4:42 *…olamning Najotkori ekanligiga amin bo‘ldik* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *olamning Najotkori — Masih ekanligiga amin bo‘ldik*.

4:46 *saroy amaldori* — Hirod Antipasning amaldorlaridan biri bo‘lishi mumkin. Hirod Antipas Jalila va Pereya hududlarida hukmronlik qilgan.

4:52 *soat birlarda* — yunoncha matnda *yettinchi soat*, yahudiylarning urf–odatiga ko‘ra,

kunning bu payti o‘sha soat bilan belgilanar edi.

5:2 *oramiycha* — bu o‘rinda ishlatilgan yunoncha so‘z ibroniy tilini yoki oramiy tilini bildirishi mumkin. O‘sha paytda qadimgi Falastinda yashagan yahudiylar odatda oramiy tilida gaplashar edilar.

5:2 *Baytzada* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *Baythasda*.

5:3-4 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida quyidagi so‘zlar 3–oyatning oxiri va 4–oyatni tashkil etib, qo‘shimcha qilingan: *Ular suvning qimirlashini intizor bo‘lib kutar edi. [4] Chunki Egamizning bir farishtasi goh–goh hovuzga tushib, suvni harakatga keltirar edi. Suv qimirlashi bilan hovuzga birinchi bo‘lib kim tushsa, har qanday xastalikdan xalos bo‘lar edi.*

5:10 *Shu kuni to‘shakni ko‘tarib yurish qonunda man etilgan!* — farziylar Tavrotdagi qonunni (Chiqish 34:21, Yeremiyo 17:21-22, Naximiyo 13:15 ga qarang) o‘zlaricha jiddiy sharhlab, hatto inson hayotiga oid ikir–chikirlarni ham qonun darajasiga ko‘targanlar. Shuning uchun ular sog‘ayib ketgan odam qilgan ishni Shabbat kuniga xilof ish deb hisoblaganlar. Yana Matto 12:9-12 ga qarang.

5:16 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida quyidagi so‘zlar oyatga qo‘shimcha qilingan: *va Uni o‘ldirish yo‘lini izlay boshladilar*.

5:25 *Xudo O‘g‘li* — Iso Masihning unvoni. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi XUDONING O‘G‘LI iborasiga qarang.

5:39 *Muqaddas bitiklar* — odatda Eski Ahd kitoblari to‘plami shu nom bilan ataladi.

6:1 *...Jalila ko‘lining narigi qirg‘og‘iga...* — bu ibora ko‘lning o‘sha qirg‘og‘idagi boshqa bir joyga qayiq bilan suzib borishni ham bildirishi mumkin. Iso aynan qayerda olomonga taom yetkazib bergani aniq emas. An’anaga ko‘ra, Iso bir necha ming kishini to‘ydirgan bu joy ko‘lning shimoli–g‘arb tomonida, Jaliladagi Baytsaydaga yaqin edi.

6:7 *ikki yuz kumush tanga* — yunoncha matnda *ikki yuz dinor*. Dinor Rim kumush tangasi bo‘lib, mardikorning bir kunlik ish haqi edi.

6:8 *Butrus* — yunoncha matnda *Shimo‘n Butrus* (shu bobning 68–oyatida ham bor). 1:40 izohiga qarang.

6:11 *...o‘tirganlarning hammasiga tarqatdi* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *shogirdlariga, shogirdlar esa o‘tirganlarning hammasiga tarqatdi*.

6:14 *dunyoga kelishi kerak bo‘lgan payg‘ambar* — 1:21 ning ikkinchi izohiga qarang.

6:17 *ko‘lning narigi tomoni* — shu bobning 1–oyati izohiga qarang.

6:19 *besh chaqirimcha* — yunoncha matnda *25-30 stadion*, taxminan 5-6 kilometrga to‘g‘ri keladi.

6:23 *Tiberiyas* — Jalila ko‘lining g‘arbiy qirg‘og‘ida joylashgan shahar.

6:25 *ko‘lning narigi bo‘yi* — shu bobning 1–oyati izohiga qarang.

6:31 *manna* — Isroil xalqi Misrdan chiqqandan keyin to Kan’on yurtiga kirguncha, Xudo ularga yetkazib turgan maxsus yegulik. Manna, Shabbat kunidan tashqari, har kuni kechasi yerga yog‘ilardi, odamlar saharda turib, uni yig‘ib olishardi (Chiqish 16:13-35, Yoshua 5:12 ga qarang).

6:31 Zabur 77:24 ga qarang.

6:45 Ishayo 54:13 ga qarang.

6:69 *Xudoning Azizi* — yunoncha matndan. Ba'zi yunon qo'lyozmalarida *Masih — barhayot Xudoning O'g'li*.

7:2 *Chayla bayrami* — bu bayram kuzda yig'im–terim tugagan paytga to'g'ri keladi.

7:21 *Men Shabbat kuni bitta mo'jiza qilganim…* — 5:1-18 ga qarang.

7:22 *sunnat odati* — sunnat Xudoning Ibrohim va uning avlodi bilan qilgan ahd belgisi edi (Ibtido 17:9-14 ga qarang). Sunnat yahudiylarning Xudoga sodiqligini va Uning tanlagan xalqiga tegishli ekanini ko'rsatadi.

7:32 *bosh ruhoniylar* — jamiyatning boshqa e'tiborli odamlari qatorida Oliy kengash a'zolari edilar. Oliy kengash yahudiylarning siyosiy va diniy kengashi edi. To'liqroq ma'lumotga ega bo'lish uchun lug'atdagi BOSH RUHONIYLAR iborasiga qarang.

7:32 *Ma'bad mirshablari* — Ma'badni qo'riqlash va u yerda tartib saqlash uchun mas'ul bo'lgan yahudiy harbiylari.

7:35 *…boshqa yurtlarda…G'ayriyahudiylarga…* — yunoncha matnda *…yunonlar orasida…Yunonlarga…*. O'sha davrda *yunonlar* so'zi nafaqat millati yunon bo'lgan, balki yunon tilida so'zlashuvchi, yunon urf–odatlariga rioya qiluvchi odamlarga nisbatan ham ishlatilgan. Bu o'rinda yahudiylarning Xudosiga sajda qilgan g'ayriyahudiylar nazarda tutilgan bo'lishi mumkin (12:20 ga va o'sha oyatning izohiga qarang).

7:40 *biz kutgan payg'ambar* — 1:21 ning ikkinchi izohiga qarang.

7:42 *Muqaddas bitiklarda…deb aytilmaganmi?!* — Mixo 5:2 ga qarang.

7:50 *Nikodim* — 3:1-15 ga qarang.

7:52 Yuhanno kitobining eng qadimgi yunon qo'lyozmalari va tarjimalari 7:53-8:11 ni o'z ichiga olmagan.

8:1 *Zaytun tog'i* — Quddus shahrining sharqiy devori bo'ylab o'tgan Qidron soyligining narigi tomonidagi tepalik.

8:3 *Tavrot tafsirchilari* — Musoning qonunini juda yaxshi bilgan ziyoli odamlar. To'liqroq ma'lumotga ega bo'lish uchun lug'atdagi TAVROT TAFSIRCHISI iborasiga qarang.

8:5 *Muso qonunda…buyurgan* — Qonunlar 22:22-24 ga qarang.

8:9 *…bu gapni eshitib…* — yunoncha matndan. Ba'zi yunon qo'lyozmalarida *bu gapni eshitib, vijdonan fosh bo'lishdi*.

8:17 Qonunlar 19:15 ga qarang.

8:28 *Inson O'g'lini yuqoriga ko'targaningizda…* — Isoning xochdagi o'limiga ishora (3:14, 12:31-33 ga qarang).

8:48 *Samariyalik* — yahudiylar Samariyaliklardan hazar qilishar edi. Bu o'rinda kamsitish niyatida ishlatilgan. To'liqroq ma'lumotga ega bo'lish uchun lug'atdagi SAMARIYALIK so'ziga qarang.

8:58 *…Ibrohim tug'ilmasdan oldin Men bor bo'lganman* — Isoning bu gapini yahudiylar kufrlik deb hisoblab, Uni toshbo'ron qilmoqchi bo'ldilar, chunki faqatgina Xudo O'zi

haqida shunday deb ayta olardi (Chiqish 3:14, Ishayo 41:4 ga qarang).

8:59 Yunoncha matndan. Ba'zi yunon qo'lyozmalarida quyidagi so'zlar oyatga qo'shimcha qilingan: *U ularning orasidan o'tib ketdi, hech kim buni sezmadi*.

9:16 *...U Shabbat kuniga rioya qilmayapti...* — farziylar Tavrotdagi qonunni (Chiqish 34:21 ga qarang) o'zlaricha jiddiy sharhlab, hatto inson hayotiga oid ikir–chikirlarni ham qonun darajasiga ko'targanlar. Shuning uchun ular Iso qilgan ishni Shabbat kuniga xilof ish deb hisoblaganlar.

9:35 *Inson O'g'li* — yunoncha matndan. Ba'zi yunon qo'lyozmalarida *Xudoning O'g'li*.

10:22 *Ma'badni bag'ishlash bayrami* — bu bayramning yana bir nomi Xanuka. Xanuka bayrami Xislav oyida — ibroniy kalendarining to'qqizinchi oyi, 25 kunida boshlanib, 8 kun nishonlanardi. Hozirgi kalendarga ko'ra, bu oy taxminan noyabrning o'rtasidan boshlanadi. Ma'bad Antiox IV tomonidan harom qilingandan keyin (Doniyor 9:27 ning oxirgi izohiga qarang), yahudiy vatanparvari Yahudo Makkavey tomonidan miloddan oldingi 165 yilda o'z holiga keltirilib, Xudoga bag'ishlangan. Ma'badning tiklanishi va Xudoga bag'ishlanishi Xanuka bayrami davomida nishonlanardi.

10:23 *Sulaymon ayvoni* — oldi ochiq, keng joy. Bu ayvon Ma'bad hovlisining sharqiy devori bo'ylab qurilgan bo'lishi mumkin. Uning qator baland ustunlari bo'lgan. Shoh Hirod qurdirgan bu Ma'badning loyihasi va rasmi lug'atdan keyin ilova qilingan "Rasmlar va loyihalar" bo'limida berilgan.

10:34 *Muqaddas bitiklar* — yunoncha matnda *qonun*. Ba'zan Eski Ahd kitoblari to'plamiga nisbatan qonun so'zi ishlatilgan.

10:34 Zabur 81:6 oyatga va Zabur 81:1 ning ikkinchi izohiga qarang.

10:36 *Xudoning O'g'li* — Iso Masihning unvoni. To'liqroq ma'lumotga ega bo'lish uchun lug'atdagi XUDONING O'G'LI iborasiga qarang.

11:1 *Baytaniya qishlog'i* — Quddus shahrining sharqiy devori bo'ylab o'tgan Qidron soyligining narigi tomonida joylashgan edi.

11:2 *...o'sha Maryam edi* — 12:1-8 ga qarang.

11:4 *Xudo O'g'li* — Iso Masihning unvoni. To'liqroq ma'lumotga ega bo'lish uchun lug'atdagi XUDONING O'G'LI iborasiga qarang.

11:16 *To'ma, ya'ni Didimus* — uning oramiycha ismi To'ma, yunonchasi Didimus edi. Ikkala tilda ham bu ismlarning ma'nosi — *egizak*.

11:18 *uch chaqirimcha* — yunoncha matnda *o'n besh stadion*, taxminan 3 kilometrga to'g'ri keladi.

11:47 *Oliy kengash* — yahudiylarning siyosiy va diniy kengashi. To'liqroq ma'lumotga ega bo'lish uchun lug'atdagi OLIY KENGASH iborasiga qarang.

11:49 *Kayafas* — 18:13 izohiga qarang.

11:52 *Xudoning tarqoq bo'lgan hamma farzandlari* — Iso Masihga imon keltiradiganlarning hammasiga ishora (1:11-12 ga qarang).

11:54 *Efrayim shahri* — O'fra nomi bilan ham mashhur bo'lgan, Quddusdan qariyb 24 kilometr shimoli–sharqda joylashgan shahar nazarda tutilgan bo'lsa kerak.

12:1 *Baytaniya* — 11:1 izohiga qarang.

12:3 *bir shisha* — yunoncha matnda *litra*, taxminan yarim litrga to‘g‘ri keladi.

12:3 *sunbul moyi* — yana bir nomi *nard*. Bu moy quyuq, och jigar rang, juda ham qimmat, juda xushbo‘y bo‘lgan.

12:5 *uch yuz kumush tanga* — yunoncha matnda *uch yuz dinor*. Dinor Rim kumush tangasi bo‘lib, mardikorning bir kunlik ish haqi edi.

12:7 *…u Meni dafn kunimga tayyorladi* — yahudiylarning urf–odatiga ko‘ra, jasad dafn qilinishidan oldin unga xushbo‘y hidli ziravorlar va moylar surtilar edi (Luqo 23:55-56, Yuhanno 19:38-40 ga qarang). Maryam qilgan ishining ma’nosini o‘zi tushunganmi yoki yo‘qmi, aniq emas, ammo uning bu harakati Isoning o‘limi yaqinlashib qolganini bildirardi.

12:13 *palma daraxti shoxlari* — hayot va najot ramzi bo‘lib, g‘olib lashkarboshiga yoki shohga hurmat–ehtirom ko‘rsatishda foydalanilgan.

12:13 *Egamiz nomidan kelayotgan Inson baraka topsin!* — Zabur 117:26 ga qarang.

12:15 *Quddus xalqi* — yunoncha matnda *qiz Sion*, Quddus ahliga nisbatan qo‘llangan she’riy usul. Quddusdagi Ma’bad qurilgan tepalik Sion tog‘i deb atalgan. Eski Ahddagi she’riy parchalarda va payg‘ambarlar bitiklarida Sion so‘zi ko‘pincha Quddus shahriga yoki Xudoning xalqiga nisbatan ishlatilgan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi SION so‘ziga qarang.

12:15 Zakariyo 9:9 ga qarang.

12:20 *g‘ayriyahudiylar* — yunoncha matnda *yunonlar* (7:35 izohiga qarang). Bu o‘rinda yahudiylarning Xudosiga sajda qiladigan, ammo yahudiylarning madaniyati va urf–odatlarini to‘liq qabul qilmagan odamlar nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin.

12:31 *bu dunyoning yovuz hukmdori* — ya’ni shayton.

12:38 Ishayo 53:1 ga qarang.

12:40 Ishayo 6:10 ga qarang.

12:47 *…rioya qilmasa…* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *ishonmasa*.

13:6 *Butrus* — yunoncha matnda *Shimo‘n Butrus* (shu bobning 9, 24, 36–oyatlarida ham bor). 1:40 izohiga qarang.

13:18 Zabur 40:10 ga qarang.

13:19 *Masih Men ekanligim* — yoki *Men o‘sha ekanligim*, ya’ni Xudo tomonidan yuborilgan, Muqaddas bitiklarda bashorat qilinganiday, xiyonat qurboni bo‘ladigan Masih.

13:23 *Isoning sevikli shogirdi* — ya’ni Yuhanno.

14:7 *…tanib–bilasizlar* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *tanib–bilgan bo‘lardingiz*.

14:16 *Homiy* — Muqaddas Ruhning unvoni. Bu o‘rinda ishlatilgan yunoncha so‘z birortasiga yordam berish uchun doim uning yonida bo‘ladigan insonni yoki Zotni bildiradi. Bu so‘zni *shafoat qiluvchi*, *nasihatgo‘y*, *madadkor*, *yupatuvchi* deb tarjima qilsa ham bo‘ladi. Bu yunoncha so‘z yuqoridagi so‘zlarga qaraganda kengroq ma’noga ega

bo‘lgani uchun, o‘zbek tiliga *Homiy* deb tarjima qilingan.

14:26 *Homiy* — shu bobning 16–oyati izohiga qarang.

14:30 *bu dunyoning yovuz hukmdori* — ya’ni shayton.

15:20 *degan so‘zim* — 13:12-17 ga qarang.

15:25 Zabur 34:19, 68:5 ga qarang.

15:26 *Homiy* — 14:16 izohiga qarang.

16:7 *Homiy* — 14:16 izohiga qarang.

16:11 *bu dunyoning yovuz hukmdori* — ya’ni shayton.

16:16 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida quyidagi so‘zlar Isoning gapiga qo‘shimcha qilingan: *chunki Men Otamning oldiga ketyapman*.

17:11 *Menga bergan O‘z noming qudrati ila ularni omon saqla* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *O‘z noming qudrati ila Menga berganlaringni omon saqla*.

17:12 *…Menga bergan noming qudrati ila ularni omon saqladim. Ularni asradim…* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *…noming qudrati ila ularni omon saqladim. Sen Menga berganlarni asradim….*

17:12 *Muqaddas bitiklarda aytilganlar* — 13:18-19 ga va Havoriylar 1:15-20 ga qarang.

17:12 *halokatga mahkum bo‘lgan odam* — Isoga xiyonat qilgan Yahudo nazarda tutilgan.

18:1 *Qidron soyligi* — Quddus shahridan sharqda, shahar bilan Zaytun tog‘i oralig‘idan o‘tgan.

18:3 *Ma’bad mirshablari* — 7:32 ning ikkinchi izohiga qarang.

18:9 *Sen Menga bergan odamlardan hech birining yo‘qolishiga yo‘l qo‘ymadim* — 6:39, 17:12 ga qarang.

18:10 *Butrus* — yunoncha matnda *Shimo‘n Butrus* (shu bobning 15, 25–oyatlarida ham bor). 1:40 izohiga qarang.

18:11 *azob kosasi* — yunoncha matnda *kosa*, Isoning azoblari va xochdagi o‘limiga ishora. “Kosadan ichmoq” iborasi azob–uqubat tortib, jazo olish ma’nosini bildiradi (misol uchun, Zabur 74:9, Ishayo 51:17, Yeremiyo 25:15 ga qarang).

18:13 *Xanan…Kayafasning qaynatasi edi* — Xanan milodiy 6-15 yillarda oliy ruhoniy bo‘lib xizmat qilgan. Rim hukumati uni bu lavozimdan chetlatgandan keyin, uning o‘rnini kuyovi Kayafas egallab, milodiy 18-37 yillarda oliy ruhoniy bo‘lib xizmat qildi. Xanan o‘z vazifasidan chetlatilganiga qaramay, xalq uni hamon oliy ruhoniy deb bilardi, u yahudiylar jamiyatida yuksak e’tibor va nufuzga ega edi (Luqo 3:2 ga qarang).

18:14 *o‘sha Kayafas* — 11:49-50 ga qarang.

18:15 *oliy ruhoniy Xanan* — shu bobning 13–oyati izohiga qarang.

18:24 *oliy ruhoniy Kayafas* — shu bobning 13–oyati izohiga qarang.

18:28 *hokim Pilat* — Rim hukumati tomonidan Yahudiya viloyatiga tayinlangan hokim.

18:28 *…bulg‘anishni istamay hukumat saroyiga kirmadilar* — yahudiylarning ta’limotiga ko‘ra, g‘ayriyahudiylarning uyiga kirish ularni harom qilib qo‘yardi.

18:28 *Fisih taomi* — bir kun oldin, ya'ni Nison oyining o'n to'rtinchi kuni Fisih ziyofatida yeyiladigan taom emas. Yangi Ahdda "Fisih" nomi ostida Fisih ziyofati va undan keyin yetti kun davomida nishonlanadigan Xamirturushsiz non bayrami nazarda tutilgan. Xamirturushsiz non bayrami davomida boshqa taomlar ham tanovul qilinardi, mazkur oyatda o'sha taomlarga ishora qilingan. To'liqroq ma'lumotga ega bo'lish uchun BAYRAMLAR so'zi ostida berilgan FISIH ZIYOFATI va XAMIRTURUSHSIZ NON BAYRAMI iboralariga qarang.

18:32 *Iso…aytgan so'zlari amalga oshishi uchun…* — Iso, yuqoriga ko'tarilaman, deganda, O'zining xochga mixlanishini nazarda tutgan edi (3:14, 8:28, 12:31-33 ga qarang). Rim qonunlariga ko'ra, faqatgina Rim hukmdori jinoyatchini o'limga hukm qila olar edi. Odatda, jamiyatdagi past tabaqa yoki hukumat dushmani hisoblangan odamlar xochga mixlanish yo'li bilan jazolanar edi.

19:1 *Pilat* — 18:28 ning birinchi izohiga qarang.

19:6 *Ma'bad mirshablari* — 7:32 ning ikkinchi izohiga qarang.

19:7 *…qonunimizga ko'ra…* — Levilar 24:16 ga qarang.

19:7 *Xudoning O'g'li* — Iso Masihning unvoni. To'liqroq ma'lumotga ega bo'lish uchun lug'atdagi XUDONING O'G'LI iborasiga qarang.

19:12 *Qaysar* — barcha Rim imperatorlariga berilgan unvon. Bu o'rinda Qaysar Tiberiyga ishora qilingan. U milodiy 14-37 yillarda hukmronlik qilgan.

19:13 *oramiycha* — 5:2 ning birinchi izohiga qarang.

19:14 *Fisih bayrami* — Nison oyining o'n beshinchi kunida boshlanadigan "Xamirturushsiz non bayrami"ga ishora. Yangi Ahdda "Fisih bayrami" nomi ostida Fisih ziyofati va undan keyin yetti kun davomida nishonlanadigan Xamirturushsiz non bayrami nazarda tutilgan. Yahudiylarning urf–odatiga ko'ra, yangi kun quyosh botgandan keyin boshlanar edi. Shuning uchun bu oyatda Yuhanno Xamirturushsiz non bayramidan oldingi kunni, ya'ni Nison oyining o'n to'rtinchi kuni quyosh botmasdan oldingi paytni nazarda tutgan. Zamonaviy kun hisobiga ko'ra, bu payt juma kunining quyosh botmasdan oldingi vaqtiga to'g'ri keladi. Fisih ziyofati Nison oyining o'n to'rtinchi kuni boshlanganda, ya'ni payshanba kuni quyosh botgandan keyin, kechqurun yeyilardi. To'liqroq ma'lumotga ega bo'lish uchun BAYRAMLAR so'zi ostida berilgan FISIH ZIYOFATI va XAMIRTURUSHSIZ NON BAYRAMI iboralariga qarang.

19:14 *tush mahali* — yunoncha matnda *oltinchi soat*, yahudiylarning urf–odatiga ko'ra, kunning bu payti o'sha soat bilan belgilanar edi.

19:17 *xoch* — bu o'rinda xochning ko'ndalang yog'ochiga ishora qilingan. O'limga mahkum qilingan inson bu yog'ochni hukm ijro qilinadigan joygacha o'zi ko'tarib borishi kerak edi.

19:24 Zabur 21:19 ga qarang.

19:25 *Magdala* — Jalila ko'lining g'arbiy qirg'og'idagi qishloq.

19:26 *sevikli shogird* — ya'ni Yuhanno.

19:28 *Muqaddas bitiklar* — Zabur 21:16, 68:22 ga qarang.

19:29 *arzon sharob* — bu o'rinda ishlatilgan yunoncha so'z avom xalq kunda ichadigan

nordon sharobga ishora qiladi. Bu sharob Rim askarlari uchun o‘sha yerga olib kelingan bo‘lishi mumkin.

19:29 *tayoq* — yunoncha matnda *issop*. Issop buta bo‘lib, uning novdasi nazarda tutilgan.

19:31 *nihoyatda tabarruk kun* — har bir Shabbat kuni muqaddas hisoblanardi. Bu yil Xamirturushsiz non bayramining birinchi kuni Shabbat kuniga to‘g‘ri kelgani uchun bu kun nihoyatda tabarruk hisoblangan.

19:31 *...boldirlarini sindirib tashlab...* — xochga mixlangan odamlar nafas olish uchun oyoqlarini tirab tik turardilar. Ular tezroq jon berishi uchun, boldirlari sindirilgan.

19:35 *Bu hodisani ko‘rgan kishi* — bu yerda muallif o‘ziga ishora qilyapti. Shu bobning 26–oyatiga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

19:36 Zabur 33:21 ga qarang. Yana Sahroda 9:12 ga qarang.

19:37 Zakariyo 12:10 ga qarang.

19:38 *Arimateya* — Quddusdan 35 kilometr shimoli–g‘arbda joylashgan shahar.

19:39 *Nikodim* — 3:1-15 ga qarang.

19:39 *ikki pud* — yunoncha matnda *yuz litra*, taxminan 34 kiloga to‘g‘ri keladi.

19:39 *mirra* — ma’lum bir daraxtlar yelimidan tayyorlangan xushbo‘y moy.

20:1 *Magdala* — Jalila ko‘lining g‘arbiy qirg‘og‘idagi qishloq.

20:2 *Butrus* — yunoncha matnda *Shimo‘n Butrus* (shu bobning 6–oyatida ham bor). 1:40 izohiga qarang.

20:2 *Isoning sevikli shogirdi* — ya’ni Yuhanno.

20:16 *oramiycha* — 5:2 ning birinchi izohiga qarang.

20:20 *qo‘llari* — yunoncha matndan. Qadimiy slavyancha tarjimada *qo‘l–oyoqlari*.

20:24 *To‘ma, ya’ni Didimus* — 11:16 izohiga qarang.

20:31 *Xudoning O‘g‘li* — Iso Masihning unvoni. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi XUDONING O‘G‘LI iborasiga qarang.

21:1 *Jalila ko‘li* — yunoncha matnda *Tiberiyas ko‘li*, Jalila ko‘lining yana bir nomi.

21:2 *Butrus* — yunoncha matnda *Shimo‘n Butrus* (shu bobning 3, 7, 11–oyatlarida ham bor). 1:40 izohiga qarang.

21:2 *To‘ma, ya’ni Didimus* — 11:16 izohiga qarang.

21:2 *Zabadiyoning o‘g‘illari* — ya’ni Yoqub va Yuhanno.

21:7 *Isoning sevikli shogirdi* — ya’ni Yuhanno.

21:8 *ikki yuz tirsak* — taxminan 90 metrga to‘g‘ri keladi.

21:15 *Shimo‘n Butrus* — Iso Masih Shimo‘nga Butrus ismini bergan edi (Mark 3:16, Luqo 6:14 ga qarang). Ba’zan u haqda so‘z yuritilganda, ikkala ism ham birgalikda ishlatiladi.

21:15 *Yuhanno* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida bu ismning boshqa varianti *Yunus*. Shu bobning 16, 17–oyatlarida ham bor.

21:19 *...Butrusning qay yo‘l bilan o‘lib, Xudoni ulug‘lashini bildirdi* — bu gap Butrus o‘z imoni uchun qatl qilinishini anglatadi. Shu bobning 18–oyatidagi “qo‘llaringni uzatasan” so‘zlari xochga mixlanishga ishora qilayotgan bo‘lishi mumkin. An’anaga ko‘ra, Butrus oyog‘i osmondan qilib xochga mixlangan.

21:20 *Isoning sevikli shogirdi* — ya’ni Yuhanno.

21:25 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida quyidagi so‘z oyatga qo‘shimcha qilingan: *omin*.

HAVORIYLARNING
FAOLIYATI

Kirish

Mazkur kitob muallifi Luqodir, bu uning ikkinchi kitobidir. Uning birinchi kitobi “Luqo bayon etgan muqaddas Xushxabar” deb atalgan. Muallif Luqo bu Xushxabarda Isoning faoliyati va ta’limotini batafsil bayon etadi. Mazkur kitobda esa u o‘z hikoyasini davom ettirib, havoriylarning faoliyatini izchil yoritadi.

Kitobning tub mag‘zi Isoning shogirdlariga aytgan quyidagi so‘zlarida aks etgan: “Muqaddas Ruh sizlarni qamrab olganda, kuch–qudratga to‘lasizlar. Quddusda, Yahudiya va Samariyada, yer yuzining hamma burchaklarida sizlar Mening shohidlarim bo‘lasizlar” (1:8). Kitobda Iso Masihni o‘likdan tiriltirgan Xudoning qudratiga va Muqaddas Ruhning faoliyatiga katta urg‘u beriladi. Kitobni “Muqaddas Ruhning havoriylar orqali ko‘rsatgan faoliyati” deb nomlasa ham bo‘ladi.

Bu kitobda ko‘plab davlatlar tilga olingani bois, dastlabki o‘qishda kitobning yagona maqsadi Masih haqidagi Xushxabarning yoyilishini tasvirlab berishdir, deb o‘ylashimiz mumkin. Ammo muallif bu kitobni yozishda bundan–da buyukroq maqsadni ko‘zlagan. Iso Masih samoga ko‘tarilib ketgandan keyin, Uning shogirdlari bir qator muammolarga duch kelganlar. Eng katta muammolardan biri “Xudoning xalqiga qo‘shilishga kimning haqi bor?” degan savol edi. Iso Masih va uning birinchi shogirdlari yahudiy bo‘lganlari sababli, Xushxabar faqatgina yahudiylarga qaratilgan, deb o‘ylashlari tabiiy edi. Ammo havoriy Filip Xushxabarni Samariyaliklarga olib borgandan keyin va havoriy Butrus Rim yuzboshisi Korniliyning uyiga tashrif buyurgandan so‘ng, masihiylarning bu mavzudagi tushunchasi o‘zgara boshlaydi. Ular, Iso Masih yahudiylarni ham, g‘ayriyahudiylarni ham gunohlaridan xalos qilishga kelgan, degan xulosaga kelishadi. Xudo har bir millat va xalqni Iso Masihga ishonishga chorlaydi.

Havoriy Pavlusning sharofati bilan Masih haqidagi Xushxabar dunyoning ko‘p joylariga yetib boradi. Pavlus Masihga imon keltirishdan oldin, farziy mazhabiga mansub bo‘lib, o‘sha davrning mashhur Tavrot tafsirchisi, Oliy kengash a’zosi Gamaliyolning shogirdi edi. Tavrot qonunini mukammal bilgan Pavlus yahudiy dinini jon–jahdi bilan himoya qiladi, u Masih jamoatini* ayovsiz ta’qib etadi. Biroq Iso Masih vahiyda O‘zini Pavlusga ayon qilgandan keyin, Pavlus Isoning sodiq shogirdlaridan biriga aylanadi. Shundan so‘ng Pavlus Rim imperiyasining deyarli hamma hududlarida Xushxabarni va’z qiladi. U hatto dunyoning o‘sha zamondagi eng buyuk shahri Rimga yetib borib, shohlaru hukmdorlarga Masih to‘g‘risidagi Xushxabarni aytadi.

Mazkur kitobga bir nechta va’z kiritilgan. Bu va’zlar yordamida biz o‘sha davrdagi masihiylarning dunyoqarashini teranroq anglab olamiz, ularning jamiyatdagi ijtimoiy ziddiyatlarga bo‘lgan munosabatini ko‘ramiz. Bu ziddiyatlarga yahudiy va butparast xalqlarning udumlari, Rim hukumati va Yunon madaniyati misol bo‘lib xizmat qiladi. Biroq kitobdagi voqealardan ko‘rinib turibdiki, Iso Masih haqidagi Xushxabarning yoyilishini hech kim va hech narsa to‘xtata olmaydi, hech qanday ziddiyat unga to‘sqinlik qila olmaydi.

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

1–BOB

Muqaddima

1-2 Ey Teofilus, birinchi kitobimda* men sizga Iso boshidan to osmonga koʻtarilgunga
qadar qilgan hamma ishlari va oʻrgatgan taʼlimoti toʻgʻrisida yozgan edim. U osmonga
koʻtarilishdan oldin, Muqaddas Ruh kuchi orqali Oʻzi tanlagan havoriylarga koʻrsatmalar
bergan edi. 3 Iso azob chekib oʻlgandan keyin, bir qancha ishonchli dalillar orqali
havoriylarga tirilganini koʻrsatdi. Qirq kun davomida ularga zohir boʻlib, Xudoning
Shohligi* toʻgʻrisida gapirdi. 4 Iso Oʻz havoriylari bilan dasturxon atrofida oʻtirar ekan,
ularga shunday amr berdi: “Quddusdan ketib qolmanglar, osmondagi Otamning* bergan
vaʼdasi* bajo boʻlishini kutinglar. Bu vaʼda haqida oldin ham sizlarga aytgan edim.
5 Yahyo odamlarni suvga choʻmdirar edi*, sizlar esa yaqin kunlarda Muqaddas Ruhga
choʻmdirilasizlar.”

Iso osmonga koʻtariladi

6 Havoriylar birga yigʻilganlarida, Isodan shunday deb soʻradilar:

— Rabbimiz, Isroil shohligini tiklaydigan vaqtingiz kelmadimi?

7 Iso ularga shunday javob berdi:

— Vaqt va davrlarni Otam Oʻz hokimiyati orqali oʻrnatgan, bularni bilish sizning
ishingiz emas. 8 Ammo Muqaddas Ruh sizlarni qamrab olganda, kuch–qudratga
toʻlasizlar. Quddusda, Yahudiya va Samariyada, yer yuzining hamma burchaklarida
sizlar Mening shohidlarim boʻlasizlar.

9 Iso shu gaplarni aytgandan keyin, havoriylarning koʻzi oldida osmonga koʻtarildi.
Bulut Isoni havoriylarning koʻzlaridan yashirdi. 10 Iso koʻtarilib ketgandan keyin ham
havoriylar koʻzlarini uzmay osmonga qarab turardilar. Shu payt birdan oq kiyim kiygan
ikki odam ularning oldida paydo boʻldi.

11 — Ey Jalilaliklar! — dedi ular. — Nimaga osmonga qarab turibsizlar? Iso osmonga
koʻtarilganini oʻz koʻzingiz bilan koʻrdingizlar. U osmonga qanday koʻtarilgan boʻlsa,
xuddi shunday qaytib keladi.

Oʻn ikkinchi havoriy tanlanadi

12 Shundan keyin ular Zaytun deb atalgan togʻdan* Quddusga qaytib keldilar. Zaytun
togʻi Quddus yonida boʻlib, shahardan taxminan bir chaqirim masofada* joylashgan edi.

13 Ular shaharga kirganlaridan keyin, oʻzlari turadigan xonadonning boloxonasiga
chiqdilar. Butrus, Yuhanno, Yoqub, Endrus, Filip, Toʻma, Bartolomey, Matto, Xalfey oʻgʻli
Yoqub, vatanparvar* Shimoʻn, Yoqub oʻgʻli Yahudo shu yerda edilar. 14 Ular yakdillik
bilan toat–ibodatga berilgan edilar. Ular qatorida baʼzi bir ayollar, shuningdek, Isoning
onasi Maryam va Uning ukalari ham bor edi.

15 Bir kuni 120 nafar imonli birodar yigʻilgan edi. Butrus ular oldida turib, shunday
dedi: 16-17 “Birodarlarim! Muqaddas Ruh oldindan Dovud orqali Yahudo* haqida
bashorat qilgandi. Muqaddas bitiklardagi Uning bu soʻzlari amalga oshishi kerak edi.
Yahudo bizlarning birimiz hisoblanib, bu xizmatda ishtirok etishga tanlangandi. Ammo
u Isoni hibsga olish uchun kelganlarga boshchilik qildi. 18 Keyin yovuz ishi bilan qoʻlga
kiritgan pulga dala sotib oldi. Ammo oʻsha yerda yiqilib tushdi, qorni yorilib, ichak–
chovoqlari chiqib ketdi. 19 Bu voqea butun Quddus aholisiga maʼlum boʻldi, shuning
uchun odamlar oʻsha joyni Xaqaldamax*, yaʼni Qon dalasi deb atadilar. 20 Zabur kitobida

shunday yozilgan:

> «Uning makoni tashlandiq bo‘lib qolsin,
> U yerda yashaydigan biron jon qolmasin.»*

Yana shunday deyilgan:

> «Uning o‘rnini boshqasi olsin.»*

21-22 Shunga ko‘ra, biz Yahudoning o‘rniga boshqa bir odamni tanlashimiz kerak. Toki u, biz singari, Rabbimiz Isoning tirilgani haqida guvohlik bersin. Bu odam Rabbimizning Yahyo tomonidan suvga cho‘mdirilgan kunidan boshlab, to osmonga ko‘tarilgan vaqtgacha bizga hamrohlik qilganlardan biri bo‘lishi shart.”
23 Shunday qilib, ular ikki kishini oldinga chiqardilar. Ulardan biri Yusuf (uning yana Barsabo va Yustus degan ismi ham bor edi), ikkinchisi esa Mattiyo edi. 24-25 Ular ibodat qilib, shunday dedilar: “Ey Rabbimiz! Sen hamma odamlarning yuragini bilasan. Mana shu ikkovidan qaysi birini havoriylik xizmati uchun tanlaganingni bizga ko‘rsatgin, chunki Yahudo xizmatini tashlab, o‘ziga tegishli yerga ketgan.”
26 Havoriylar ular uchun qur’a* tashladilar. Qur’a Mattiyoning chekiga tushdi. Mattiyo o‘n bir havoriyga qo‘shildi.

2–BOB

Muqaddas Ruhning kelishi

1 Hosil bayrami* kuni kelganda, hamma imonlilar bir joyda yig‘ildilar. 2 Birdan osmondan shiddatli shamol esganga o‘xshash ovoz kelib, ular o‘tirgan uyning ichini to‘ldirdi. 3 Ular til shaklidagi alangani ko‘rdilar. O‘sha alanga yoyilib, har birining ustiga tushdi. 4 Shunda hammalari Muqaddas Ruhga to‘ldilar, Muqaddas Ruh bergan qobiliyatga ko‘ra, ular boshqa tillarda gapira boshladilar.
5 O‘sha paytda Quddusda dunyodagi har bir yurtdan kelgan taqvodor yahudiylar yashar edi. 6 Ular bu ovozni eshitganlarida, bir talay olomon yig‘ilib keldi. Har biri o‘z tilidagi gaplarni eshitib, dovdirab qoldi. 7 Ular hayrat va hayajon ichida: “Qaranglar, gapirayotgan bu odamlar Jalilaliklar–ku! — deb xitob qildilar. 8 — Qanday qilib har birimiz tug‘ilgan yurtimizning tillarini eshityapmiz? 9 Oramizda Parfiyadan, Midiya, Elam, Mesopotamiya, Yahudiya, Kappadokiya, Pontus va Asiyadan kelganlar bor. 10 Frigiya, Pamfiliya, Misr, Liviyaning Kirineyaga yaqin yerlaridan kelganlar ham bor. Ba’zilarimiz Rimdan kelganmiz, biz yahudiylarmiz, oramizda yahudiy diniga kirgan* Rimliklar ham bor. 11 Ba’zilarimiz Krit va Arabistondan kelganmiz. Shunday bo‘lsa–da, ular Xudoning qilgan qudratli ishlari to‘g‘risida bizga o‘z tillarimizda gapirib berayotganini eshitib turibmiz.”
12 Ular hayratlanib, boshlari qotib, bir–birlaridan: “Bu nimadan darak beradi?” deb so‘rardilar. 13 Boshqalar esa: “Iye, ular ichib mast bo‘lib qolibdilar–ku”, deb masxara qilishardi.

Butrusning nutqi

14 Shunda Butrus o‘n bir havoriy bilan oldinga chiqdi–da, olomonga qarata shunday dedi: “Ey yahudiy birodarlar, Quddus aholisi! Gapimga quloq solib, shuni uqib olinglar!

15 Bu odamlarni sizlar mast deb o‘ylayapsizlar, ammo unday emas. Axir, endigina ertalab
soat to‘qqiz* bo‘ldi–ku! 16 Aksincha, Yo‘el payg‘ambarning aytganlari bajo bo‘lmoqda:

17 «Xudo aytmoqda:

Oxirgi kunlarda*,
O‘z Ruhimni yog‘diraman har bir inson ustiga,
Vahiylar keladi yigitlaringizga.
Bashoratlar qilar sizning o‘g‘il–qizlaringiz.
Karomatli tushlar ko‘rar qariyalaringiz.
18 O‘z Ruhimni yog‘diraman o‘sha kunlarda
Hattoki qulu cho‘rilaringiz ustiga.
Ular bashorat qilarlar.
19-20 Mening buyuk va dahshatli kunim kelishidan oldin,
Men osmonda mo‘jizalar yarataman,
Yerda alomatlar ko‘rsataman:
Qon, olov, qalin tuman hosil qilaman.
Quyosh qorayadi, oy qon tusiga kiradi.

21 Rabbimizga iltijo qilgan har bir inson qutqariladi.»*

22 Ey Isroil xalqi, bu gaplarimni eshitib olinglar: Nosiralik Iso orqali Xudo sizlarning
orangizda mo‘jizalar va alomatlar ko‘rsatdi. Shu yo‘l bilan Isoda ilohiy hokimiyat
borligini Xudo tasdiqladi. Buni o‘zlaringiz bilasizlar. 23 Xudo O‘zining rejasi bo‘yicha
Isoni sizlarning qo‘lingizga topshirishni azaldan qaror qilgan edi. Sizlar esa
g‘ayriyahudiylarning qo‘llari bilan Uni xochga mixlatib o‘ldirdingizlar. 24 Ammo Xudo
Uni tiriltirib, o‘lim azoblaridan ozod qildi. O‘lim o‘z kuchi bilan Isoni ushlab turishga
qodir emasdi. 25 Dovud U haqda shunday degan edi:

«Men doim Egamga ko‘z tikaman,
U o‘ng tomonimda bo‘lgani uchun
Meni hech narsa qo‘zg‘ata olmas.
26 Shu bois, ey Egam, yuragim quvonchga to‘la,
Tilim ham shod–xurramdir.
Tanam umid bilan yashaydi.
27 Meni o‘liklar diyorida* qoldirmaysan,
Taqvodoringni* qabrda chiritmaysan.
28 Menga hayot so‘qmoqlarini O‘zing ko‘rsatasan,
Huzuringda shodlik Meni qamrab oladi.»*

29 Birodarlarim! Bobomiz Dovud to‘g‘risida sizlarga ochiq–oydin gapirishim kerak. U
o‘ldi, dafn qilindi, uning qabri bugungacha shu yerdadir. 30 U payg‘ambar bo‘lgani bois,
Xudo unga: «O‘z naslingdan bo‘lgan bittasini taxtingga o‘tqazaman*», deb ichgan ontini*
yodida tutardi. 31 Dovud kelajakni oldindan ko‘rib, Masihning tirilishi to‘g‘risida
gapirgan edi. Xudo Masihni o‘liklar diyorida qoldirmasligi va Masihning tanasi
chirimasligi haqida Dovud bashorat qilgandi*. 32 Ana shu Isoni Xudo tiriltirdi, bunga

hammamiz guvohmiz. 33 Xudo Isoni yuksaltirib, Uni taxtining o‘ng tomoniga* o‘tqazdi.
Otasi Xudoning va’dasi bo‘yicha Iso Muqaddas Ruhni qabul qilib, Uni bizning ustimizga
yog‘dirdi. Buni o‘zlaringiz ko‘rib va eshitib turibsizlar. 34-35 Dovud osmonga chiqmagan
bo‘lsa–da, shunday degan edi:

> «Egamiz aytmoqda Rabbimga:
> Dushmanlaringni oyoqlaring ostiga poyandoz qilmagunimcha,
> Sen Mening o‘ng tomonimda o‘tirgin.»*

36 Butun Isroil xalqi shuni aniq bilib qo‘ysin: sizlar mixlagan Isoni Xudoning O‘zi
jamiki borliq ustidan hukmdor qildi. Iso ham Masih*, ham Rabbiydir.”
37 Xaloyiq bu gaplarni eshitdi–yu, yuraklari tilka–pora bo‘ldi. Ular Butrusdan va
qolgan havoriylardan:
— Birodarlar, endi biz nima qilaylik? — deb so‘radilar.
38 Butrus ularga dedi:
— Tavba qilinglar, har biringiz Iso Masihning nomi bilan suvga cho‘minglar, toki
gunohlaringiz kechirilsin. Shunda sizlar Muqaddas Ruhni in’om qilib olasizlar. 39 Xudo
sizlarga va bolalaringizga, uzoqdagilarga, Egamiz Xudo O‘ziga da’vat etganlarning har
biriga va’dasini bergan.
40 Butrus boshqa ko‘p dalillar bilan ularga guvohlik berib: “O‘zlaringizni bu buzuq
nasl ustiga kelayotgan jazodan saqlanglar”, deya o‘tindi. 41 Shunday qilib, Butrusning
aytgan xabariga ishonganlar suvga cho‘mdirildi. O‘sha kuni imonlilar soni uch mingtaga
ko‘paydi. 42 Ular havoriylarning ta’limotini o‘rganishga, birodarlikka, Rabbimiz Isoni
xotirlab, non sindirishga* va ibodatga o‘zlarini bag‘ishladilar.

Imonlilarning hayoti

43 Havoriylar orqali Xudo ko‘plab mo‘jizalar va alomatlar ko‘rsatardi, bundan esa
hamma hayratga tushgan edi. 44 Barcha imonlilar tez–tez yig‘ilishib turar edilar. Ular
hamma narsada hamjihat edilar. 45 Mol–mulklarini sotib, pulini har kimning ehtiyojiga
qarab taqsimlab berardilar. 46 Imonlilar har kuni Ma’badda yig‘ilardilar. Bir–
birlarinikiga mehmonga borganda esa Rabbimiz Isoni xotirlash uchun non sindirardilar,
soddadillik bilan, yurakdan sevinib ovqatlanishardi. 47 Xudoga hamdu sanolar
aytardilar, xalqning hurmatu e’tiboridan bahramand edilar. Har kuni Egamiz najot
topayotganlarni imonlilarning qatoriga qo‘shardi.

3–BOB

Shol tilanchi shifo topadi

1 Bir kuni Butrus bilan Yuhanno kunduzi soat uchlarda* — ibodat vaqtida Ma’badga
ketayotgan edilar. 2 O‘sha paytda Ma’bad oldiga bir tug‘ma shol odamni olib kelishdi. Uni
har kuni Ma’badning Go‘zal degan darvozasiga keltirib qo‘yishardi, u esa tilanchilik qilib,
Ma’badga kelgan odamlardan sadaqa yig‘ardi. 3 O‘sha odam Butrus bilan Yuhannoning
kelayotganini ko‘rib, sadaqa berib ketinglar, deb yalindi. 4 Ikkovi unga tikildi. Shu payt
Butrus:
— Bizga qara! — dedi. 5 U odam biron narsa olish ilinjida ikkoviga diqqat bilan
qaradi. 6 Butrus esa unga dedi:

— Mening pulim yoʻq, ammo oʻzimda bor narsani senga beraman. Nosiralik Iso Masih nomi bilan senga buyuraman: oʻrningdan turib yur!
7 Shundan keyin Butrus shol odamni oʻng qoʻlidan ushlab, oʻrnidan turishiga koʻmaklashdi. Shu zahoti shol odamning oyoqlari bilan toʻpiqlari mustahkam boʻldi. 8 U sakrab turdi–yu, yura boshladi. Keyin u yurib, sakrab, Xudoga hamdu sano aytib, Butrus va Yuhanno bilan birga Ma’bad hovlisiga kirdi. 9 Yurib Xudoga hamdu sano aytayotgan bu odamni xalq koʻrib, 10 tanib qoldi. Odamlar: “Goʻzal darvozasi yonida oʻtirib, sadaqa soʻraydigan odam–ku bu!” deb hayratlanib, yuz bergan voqeadan hayron qoldilar.

Butrusning Ma’badda aytgan nutqi

11 Butrus bilan Yuhanno Sulaymon ayvoni* degan joyda turar edilar. Shol odam ikkovining qoʻlidan mahkam ushlab olgan edi. Xalq hayrat ichida ularning oldiga yugurib keldi. 12 Butrus odamlarni koʻrgach, ularga qarata nutq soʻzladi: “Ey Isroil xalqi! Nega bunga hayron boʻlyapsizlar? Xuddi biz oʻz qudratimiz yoki xudojoʻyligimiz bilan bu odamga shifo berganday, nega bizga tikilib qarayapsizlar? 13 Bu odamga ota–bobolarimiz Ibrohim, Is’hoq va Yoqubning Xudosi shifo berdi. Shu orqali Xudo Oʻzining Quli* Isoni ulugʻladi. Ammo sizlar Isoni tutib berdingizlar. Pilat* Uni ozod etishga qaror qilganda ham, sizlar Uni Pilatning huzurida rad etdingizlar. 14 Ha, sizlar Muqaddas va Solih boʻlgan Isoni rad qilib, Uning oʻrniga bir qotilning ozod boʻlishini talab qildingizlar. 15 Sizlar hayotga boshlovchini oʻldirdingizlar. Ammo Xudo Uni oʻlikdan tiriltirdi. Biz bunga guvohmiz. 16 Oʻzlaringiz koʻrib–bilib turgan mana bu odam Isoning nomiga boʻlgan imoni tufayli soppa–sogʻ turibdi. Iso bergan bu imon uni koʻz oʻngingizda butunlay sogʻaytirdi.
17 Ey birodarlar, sizlar Isoga qilgan bu yomonligingizni hukmdorlaringiz kabi, bilmasdan qilganingizni bilaman. 18 Ammo Xudo paygʻambarlarning ogʻzi bilan aytgan bashoratini bu qilmishingiz orqali bajo qildi. Axir, paygʻambarlar, Masih azob chekadi, deb oldindan aytgan edilar. 19 Endi tavba qilinglar, Xudoga yuz buringlar, toki gunohlaringiz kechirilsin. 20 Shunda Egamiz sizlarga farogʻat vaqtini ato qiladi. U sizlar uchun tanlangan Masihni — Isoni yuboradi. 21 Xudo Oʻzining muqaddas paygʻambarlari orqali azaldan e’lon qilganday, hamma narsalar yangilanadigan davr keladi. Ammo oʻsha davr kelguncha Iso samoda qolishi kerak.
22 Muso shunday degan edi: «Egangiz Xudo sizlar uchun xalqingiz orasidan menga oʻxshagan bir paygʻambar chiqaradi. Uning aytgan har bir soʻziga quloq solinglar. 23 Oʻsha paygʻambarga itoat etmaydigan har kim Xudoning xalqi orasidan ajratib olinib, yoʻq qilinadi.»* 24 Haqiqatan ham, Shomuil va undan keyin kelib xabar bergan hamma paygʻambarlar biz yashayotgan bu kunlar haqida bashorat qilgan edilar. 25 Xudoning Oʻz paygʻambarlari orqali bergan va’dalari sizlar uchundir. Sizlar Xudoning Ibrohim orqali ota–bobolaringiz bilan tuzgan ahdini oʻzlaringizga meros qilib olyapsizlar. Axir, Ibrohimga Xudo: «Sening zurriyoting* orqali yer yuzidagi jamiki xalqlar baraka topadi»*, deb aytgan edi. 26 Xudo Oʻz Quli* Isoni zohir qilgandan keyin, Uni birinchi boʻlib sizlarning orangizga yubordi. Chunki U har biringizni yomon yoʻldan qaytarib, sizlarga baraka bermoqchi.”

4–BOB

Butrus bilan Yuhanno Oliy kengash oldida

1 Butrus bilan Yuhanno xalqqa gapirib turganlarida, bir necha ruhoniylar*, Ma’bad
mirshabboshisi* va sadduqiy* mazhabining ba’zi a’zolari keldilar. 2 Ularning qattiq jahli
chiqqan edi, chunki bu ikkala havoriy xalqqa ta’lim berib, Iso o‘likdan tirildi, deb va’z
qilayotgan edilar. 3 Ular ikkala havoriyni ushlab, vaqt kech bo‘lgani uchun ertasi kun
ertalabgacha qamoqda saqladilar. 4 Ammo bu xabarni eshitganlarning ko‘pchiligi
imonga keldi. Shunday qilib, imonlilarning orasidagi erkaklarning soni besh mingga
yetdi.

5 Keyingi kun bosh ruhoniylar*, yo‘lboshchilar, Tavrot tafsirchilari* Quddusda
yig‘ildilar. 6 Oliy ruhoniy Xanan*, Kayafas, Yuhanno, Iskandar va oliy ruhoniy oilasiga
mansub bo‘lgan boshqa erkaklar yig‘inda ishtirok etdilar. 7 Ular ikkala havoriyni o‘rtaga
turg‘izib qo‘yib, so‘radilar: “Buni qanday qudrat bilan, kimning nomidan qildingizlar?”

8 Shunda Muqaddas Ruhga to‘lgan Butrus ularga shunday dedi: “Ey xalq rahnamolari
va yo‘lboshchilari! 9 Agar bir xasta odamga qilingan yaxshilik tufayli bizdan hisob talab
qilayotgan bo‘lsangiz va bu odamning qanday qilib sog‘ayganini so‘rayotgan bo‘lsangiz,
10 sizlar, ey Isroil xalqi, hammalaringiz shuni bilib qo‘yinglarki, mana bu odam Nosiralik
Iso Masih nomi bilan tamomila sog‘ayib, oldingizda turibdi. Isoni sizlar xochga mixlagan
edingizlar, Xudo esa Uni o‘likdan tiriltirdi. 11 Axir, Iso to‘g‘risida Muqaddas bitiklarda
shunday yozilgan:

> «Ey binokorlar, siz rad etgan tosh
> Binoning tamal toshi* bo‘ldi.»*

12 Najot boshqa hech kimdan kelmaydi. Uning nomi — butun olamda najot beradigan
yagona nomdir.”

13 Kengash* a’zolari Butrus bilan Yuhannoning jasoratini ko‘rdilar va ularning
o‘qimagan, oddiy odam ekanliklarini bilib, hayron qoldilar. Butrus bilan Yuhanno
Isoning sheriklari ekanini angladilar. 14 Shifo topgan odam ham ikkala havoriy bilan
birga turgan edi. Shuning uchun xalq rahnamolari va yo‘lboshchilari uni ko‘rib,
ikkovining gaplariga qarshi biron so‘z ayta olmadilar.

15 Shunday qilib, ular havoriylarga: “Majlisxonadan chiqinglar”, deb buyruq berdilar.
So‘ngra o‘zaro muhokama qila boshladilar: 16 “Bu odamlarni nima qilamiz? Bu ajoyib
mo‘jizani mana shu odamlar qilganini Quddusdagi har bir odam biladi, biz buni inkor
eta olmaymiz. 17 Ammo bu xabar xalq orasida yanada yoyilib ketishining oldini olish
uchun, bundan keyin Isoning nomi bilan hech kimga gapirmaysizlar, deb ularni
ogohlantirib qo‘yamiz.”

18 Shunday qilib, ular ikkovini chaqirdilar va: “Isoning nomi bilan umuman
gapirmaysizlar yoki ta’lim bermaysizlar”, deb buyruq berdilar. 19 Butrus bilan Yuhanno
esa ularga shunday javob qaytardilar: “Xudodan ko‘ra sizlarga itoat etsak, Xudoning
nazarida to‘g‘ri bo‘ladimi? O‘zlaringiz xulosa chiqaraveringlar. 20 Biz esa ko‘rganlarimiz
va eshitganlarimiz to‘g‘risida gapirmasdan tura olmaymiz.”

21 Shunday qilib, Kengash a’zolari ularni oxirgi marta ogohlantirib, qo‘yib yubordilar.
Ularni jazolash uchun hech qanday sabab topa olmagandilar, chunki butun xalq yuz

bergan voqeani bilib, Xudoga hamdu sano aytardi. 22 Axir, mo‘jizali alomat tufayli shifo
topgan odam qirq yildan oshiq vaqt davomida shol bo‘lgan edi.
23 Butrus bilan Yuhanno ozod bo‘lishlari bilanoq, do‘stlarining oldiga qaytib keldilar
va bosh ruhoniylar bilan yo‘lboshchilarning ularga aytgan gaplarini so‘zlab berdilar.
24 Do‘stlari bu gaplarni eshitganlaridan keyin, hammalari birgalikda baland ovozda
Xudoga shunday deb ibodat qildilar: “Ey Egamiz! Sen osmon bilan yerni, dengizni va
ulardagi hamma mavjudotni yaratgansan! 25 Quling — bobomiz Dovud orqali Muqaddas
Ruhing bilan shunday degansan:

> «Nega quturadi xalqlar?!
> Nega behuda fitna qilar elatlar?!
> 26 Egamizga va Uning Masihiga qarshi
> Zamin shohlari saf tortdilar,
> Hukmdorlar Unga qarshi birlashdilar.»*

27 Haqiqatan, Hirod* bilan Po‘ntiy Pilat* g‘ayriyahudiylar va Isroil xalqi bilan birga bu
shaharda Sening muqaddas Quling*, O‘zing Masih qilib tanlagan Isoga qarshi
to‘plandilar*. 28 Qudrating va xohish–irodang bilan O‘zing ilgaridan qaror qilgan hamma
narsani ular ijro etdilar. 29 Endi, ey Egamiz, ularning tahdidlariga qara! Sening so‘zingni
jasorat bilan aytishimiz uchun, biz, qullaringga kuch ber. 30 Qudratingni ko‘rsat, toki
Muqaddas Quling* Iso nomi bilan xastalarga shifo beraylik, alomatlar va mo‘jizalar
ko‘rsataylik.”
31 Hammalari ibodat qilib bo‘lganlaridan keyin, ular yig‘ilib turgan joy silkindi.
Hammalari Muqaddas Ruhga to‘lib, Xudoning so‘zini jasorat bilan gapiradigan bo‘ldilar.

Imonlilar mol–mulklarini taqsimlab beradilar

32 Imonga kelganlar yakdil va hamjihat edilar. Ulardan birontasi o‘ziga qarashli biron
narsani “Bu meniki”, deb aytmas, bor mol–mulklarini umumiy deb bilishardi.
33 Havoriylar buyuk qudrat bilan Rabbimiz Isoning tirilganiga guvohlik berardilar. Xudo
ularning hammalariga mo‘l–ko‘l muruvvat ko‘rsatardi. 34 Imonlilarning orasida bironta
muhtoj odam yo‘q edi. Dala yoki uy–joy egalari bor narsalarini sotardilar, sotuvdan
tushgan mablag‘ni olib kelib, 35 havoriylarning ixtiyoriga berardilar. Pullar odamlarning
ehtiyojiga qarab taqsimlanardi. 36 Imonlilar orasida Levi qabilasidan bo‘lgan Yusuf ismli
bir odam bor edi. U asli Kiprdan edi. Havoriylar unga Barnabo, ya’ni “dalda beruvchi”
degan nom bergan edilar. 37 Yusuf ham dalasini sotib, pulini havoriylarga in’om qildi.

5–BOB

Xanoniyo bilan Sapfira

1 Xanoniyo degan bir odam xotini Sapfira bilan kelishib, mulkidan bir qismini sotdi.
2 Xanoniyo pulning bir qismini o‘ziga olib qoldi. Xotini bu haqda bilardi. Xanoniyo
pulning qolganini havoriylarga olib borib berdi. 3 Butrus undan so‘radi:
— Xanoniyo, nimaga shaytonga qalbingdan joy berib, Muqaddas Ruhga yolg‘on
gapirding? Yerning pulidan bir qismini olib qolding–ku! 4 Mulkingni sotmasingdan oldin,
u seniki edi, sotganingdan keyin ham, pul seniki edi. Bunday ish qilishga qanday jur’at
etding?! Sen odamlarga emas, balki Xudoga yolg‘on gapirding!

5 Xanoniyo bu so‘zlarni eshitishi bilanoq yerga yiqilib jon berdi. Bu voqeani
eshitganlarning hammasi qattiq vahimaga tushib qoldi. 6 Yigitlar kelib, uning jasadini
kafanladilar, keyin uni olib chiqib, dafn qildilar.
7 Uch soatlardan keyin Xanoniyoning xotini keldi. Yuz bergan hodisadan u bexabar
edi. 8 Butrus ayoldan so‘radi:
— Menga ayt–chi, sen bilan ering yerlaringizni falon narxga sotdingizlarmi?
— Ha, o‘shancha narxga sotdik, — deb javob berdi ayol. 9 Shunda Butrus ayolga dedi:
— Nima uchun sizlar Egamizning Ruhini sinashga qaror qildingizlar? Ana, eringni
dafn qilgan odamlar eshikdan kirib kelishyapti. Endi ular seni ham olib chiqadilar.
10 Shu zahoti ayol ham yiqildi–yu, jon berdi. Yigitlar kirib kelib ko‘rdilarki, ayol jon
beribdi. Ular ayolni ham olib borib, erining yoniga dafn qildilar. 11 Bu voqeani eshitgan
odamlar va butun jamoat* vahimaga tushib qoldi.

Mo‘jizalar va ajoyibotlar

12 Havoriylar xalq orasida ko‘plab mo‘jizalar va ajoyibotlar ko‘rsatardilar. Hamma
imonlilar Sulaymon ayvonida* yig‘ilishardi. 13 Xalq ularga g‘oyat hurmat ko‘rsatar,
begonalardan hech kim ularga qo‘shilishga jur’at qilolmasdi. 14 Ammo Rabbimiz Isoga
imon keltirib, jamoatga qo‘shilgan erkagu ayollar soni tobora ko‘payib boraverdi.
15 Odamlar: “Butrus yo‘ldan o‘tayotganda, uning soyasi bularning ustiga tushsin”, deb
xastalarni ko‘chalarga olib chiqishardi. Ularni chorpoyalarga, to‘shaklarga yotqizib
qo‘yishardi. 16 Bir talay olomon ham Quddus atrofidagi qishloqlardan keldi. Ular ham
xasta, yovuz ruhlardan azob chekayotganlarni olib kelgan edilar. Xastalarning hammasi
shifo topdi.

Havoriylar quvg‘in qilinadilar

17 Shunda sadduqiy mazhabidan bo‘lgan oliy ruhoniy va uning barcha sheriklari
havoriylarga qahrini sochdilar. 18 Ular havoriylarni hibsga olib, davlat qamoqxonasiga
tashladilar. 19 Ammo tunda Egamizning bir farishtasi qamoqxona eshigini ochdi,
havoriylarni tashqariga olib chiqib, shunday dedi:
20 — Boringlar, Ma’badda turib, bu yangi hayot to‘g‘risidagi xabarni odamlarga
aytinglar.
21 Havoriylar bu gapni eshitib, azonda Ma’bad hovlisiga kirdilar va odamlarga ta’lim
bera boshladilar.
Oliy ruhoniy va uning yordamchilari Ma’badga keldilar va Oliy kengashni, ya’ni
hamma Isroil yo‘lboshchilarini chaqirtirdilar. Havoriylarni olib kelish uchun
qamoqxonaga odam yubordilar. 22 Ma’bad mirshablari borib, qamoqxonada havoriylarni
topa olmadilar. Ular qaytib kelib, xabar berdilar:
23 — Borsak, qamoqxona mahkam qulflangan, soqchilar eshik oldida turishgan ekan.
Ammo eshiklarni ochib ichkariga kirganimizda, ichkarida hech kimni topa olmadik.
24 Ma’bad mirshabboshisi* va bosh ruhoniylar bu so‘zlarni eshitib, havoriylarga nima
bo‘ldi ekan, deb hayron bo‘ldilar. 25 Shu payt bir odam kelib, xabar berdi:
— Sizlar qamoqqa tashlagan odamlar Ma’bad hovlisida turibdilar, odamlarga ta’lim
beryaptilar.
26 Mirshabboshi bilan mirshablar borib, havoriylarni hibsga oldilar, ammo zo‘rlik
qilmadilar. “Odamlar bizni toshbo‘ron qilmasin”, deb qo‘rqdilar.
27 Ular havoriylarni olib kelib, Oliy kengash oldida turg‘izib qo‘ydilar. Oliy ruhoniy

ularga shunday dedi:

28 — Biz sizlarga, bu Odamning nomi bilan ta’lim bermanglar, deb qat’iy
taqiqlamaganmidik?! Sizlar esa butun Quddus bo‘ylab ta’limotingizni yoyib yuboribsiz!
Bu Odamning qonini bizning gardanimizga yuklayapsizlar!

29 Butrus bilan havoriylar shunday javob berdilar:

— Biz insonga emas, Xudoga itoat etishimiz lozim. 30 Sizlar Isoni yog‘ochga* mixlab
o‘ldirgan edingizlar, ota–bobolarimizning Xudosi esa Uni tiriltirdi. 31 Xudo Isoni
yuksaltirib, O‘zining o‘ng tomoniga o‘tqazdi*. Isroil xalqi tavba qilsin, ularning gunohlari
kechirilsin deb, Xudo Isoni Sarvar va Najotkor qilib tayinladi. 32 Biz bularga guvohmiz,
Muqaddas Ruh ham guvohdir. Xudo Muqaddas Ruhni Unga itoat etadiganlarga in’om
qilgan.

33 Oliy kengash bu gaplarni eshitib, g‘azabga mindi, havoriylarni o‘ldirmoqchi bo‘ldi.
34 Oliy kengashda xalqning hurmatiga sazovor bo‘lgan bir Tavrot tafsirchisi bor edi.
Uning ismi Gamaliyol bo‘lib, u farziylardan* edi. Gamaliyol o‘rnidan turib, havoriylarni
qisqa vaqtga tashqariga olib chiqishlarini buyurdi. 35 Shundan keyin u Oliy kengashga
dedi:

— Ey, Isroil yo‘lboshchilari, bu odamlarni biron narsa qilmoqchi bo‘lsangiz, ehtiyot
bo‘linglar. 36 Esingizda bo‘lsa, bir qancha vaqt oldin Fevdas degan odam buyuklikka
da’vo qilgandi. Hatto to‘rt yuztacha odam unga ergashdi. Ammo Fevdas o‘ldirildi, uning
izdoshlari tarqalib, yo‘q bo‘lib ketdi. 37 Shundan keyin aholini ro‘yxatga olish paytida
paydo bo‘lgan Jalilalik Yahudo bir qancha odamni ortidan ergashtirdi. U ham halok
bo‘ldi, unga ergashganlarning hammasi tarqalib ketdi. 38 Shu bois sizlarga aytyapman:
bu odamlarga qarshi biron harakat qila ko‘rmanglar. Ularni o‘z holiga qo‘yinglar!
Ularning rejalari va qilayotgan ishlari insonniki bo‘lsa, bu ishlari barham topadi. 39 Agar
Xudodan bo‘lsa, sizlar ularni mag‘lub qila olmaysizlar. Yana o‘zlaringiz Xudoga qarshi
jang qilayotgan bo‘lib qolmanglar.

40 Shunday qilib, Oliy kengash Gamaliyolning maslahatiga rozi bo‘ldi. Ular
havoriylarni chaqirib, qamchi bilan savalatdilar, “Hech qachon Isoning nomi bilan
gapirmaysizlar”, deb buyruq berib, qo‘yib yubordilar.

41 Havoriylar Oliy kengash huzuridan xursand bo‘lib chiqdilar, chunki ular “Xudo
bizni Isoning nomi uchun haqoratlanishimizga loyiq hisobladi”, der edilar. 42 Ular har
kuni Ma’bad hovlisida va odamlarning uylarida ta’lim berardilar. Isoning Masih ekani
to‘g‘risidagi Xushxabarni va’z qilishda davom etaverdilar.

6–BOB

Xizmatga tanlangan yetti kishi

1 Shu vaqt davomida shogirdlarning soni ortib boraverdi. Ammo shu paytda
yunonzabon va oramiyzabon* yahudiy imonlilar orasida ziddiyat paydo bo‘ldi.
Yunonzabon yahudiylar: “Kundalik oziq–ovqat taqsimlanganda, yunonzabon bevalar
e’tibordan chetda qolyaptilar”, deb e’tiroz bildirdilar. 2 O‘n ikki havoriy jamiki
shogirdlarni yig‘ib, ularga shunday dedilar:

— Biz Xudoning kalomini va’z qilishni bir chetda qoldirib, ozuqa tarqatish bilan
ovora bo‘lishimiz noto‘g‘ri. 3 Birodarlar, orangizdan yetti kishini tanlanglar. Ular obro‘–
e’tiborga ega, Muqaddas Ruhga va donolikka to‘lib–toshgan bo‘lsin. Ularni bu xizmatga

tayin etaylik. 4 Biz esa o‘zimizni ibodatga va Xudo kalomining xizmatiga bag‘ishlaylik.
5 Ularning gapi butun jamoaga ma’qul bo‘ldi. Jamoa imonga va Muqaddas Ruhga to‘la Stefanni, shuningdek, Filip, Proxorus, Nikanor, Timon, Parmenas va ilgari yahudiy diniga kirgan* Antioxiyalik Nikolasni tanladilar. 6 Ular bu odamlarni havoriylarning oldiga turg‘izib qo‘ydilar. Havoriylar ularga qo‘llarini qo‘yib, ibodat qildilar.
7 Shunday qilib, Xudoning so‘zi yoyilib boraverdi. Shogirdlar soni Quddusda ko‘paydi. Ruhoniylarning ko‘pchiligi imonga keldilar.

Stefan hibsga olinadi

8 Stefan Xudoning marhamatiga va ilohiy qudratga to‘lgan edi*. U xalq orasida ajoyib mo‘jizalar va alomatlar ko‘rsatdi. 9 Ammo “Ozod qilingan qullar” degan sinagoga a’zolarining ba’zilari — Kirineyaliklar, Iskandariyaliklar, shuningdek, Kilikiya va Asiyaliklar Stefan bilan bahslasha boshladilar. 10 Muqaddas Ruh Stefanga ko‘p donolik berdi, shuning uchun ular Stefanning gaplarini inkor qila olmadilar. 11 Shundan keyin sinagoga a’zolari ba’zi odamlarni gijgijlab: “Stefan Musoga va Xudoga qarshi kufr so‘zlar aytganini eshitdik”, deb aytishga ko‘ndirdilar. 12 Shu yo‘l bilan ular xalqni, yo‘lboshchilarni, Tavrot tafsirchilarini qayradilar. Ular Stefanni ushlab, Oliy kengashga olib keldilar. 13 Shunda ular soxta guvohlarni yolladilar. Soxta guvohlar shunday dedilar: “Bu odam mana shu muqaddas Ma’badga va qonunga qarshi gaplar aytishdan to‘xtamayapti. 14 Uning aytishicha, Nosiralik Iso Ma’badni qulatar emish, Muso bizlarga bergan urf–odatlarni o‘zgartirar emish.” 15 Oliy kengashda o‘tirganlar Stefanga tikilib qaradilar, uning yuzi xuddi farishtaning yuziga o‘xshash ekanini ko‘rdilar.

7–BOB

Stefanning Oliy kengash oldidagi nutqi

1 Oliy ruhoniy Stefandan: “Shu gaplar rostmi?” deb so‘radi. 2 Stefan shunday javob berdi: “Birodarlar, otalar! Mening gaplarimga quloq solinglar. Bobomiz Ibrohim hali Xoronda yashamasdan oldin — Mesopotamiyada* bo‘lgan paytda ulug‘vor Xudo unga zohir bo‘lib, 3 shunday dedi: «O‘z yurtingdan, qarindosh–urug‘laring oldidan chiqib ket. Men senga bir yurtni ko‘rsataman, o‘sha yerga borasan.»* 4 Shundan keyin Ibrohim Xaldeylar yurtini* tark etib, Xoronga borib o‘rnashdi. Ibrohimning otasi vafot etgach, Xudo uni Xorondan hozir sizlar yashab turgan yurtga ko‘chirdi. 5 Xudo Ibrohimga u yerdan mulk bermadi, hatto bir qarich yer ham bermadi. Lekin Ibrohimga va uning nasliga o‘sha yurtni mulk qilib berishni va’da qildi. Vaholanki, o‘sha paytda Ibrohimning farzandi yo‘q edi. 6 Xudo unga shunday dedi: «Sening nasling begona bir yurtda musofir bo‘lib yashaydi. To‘rt yuz yil qul bo‘lib, jabr–zulm tortadi. 7 Ammo ularni qul qilib oladigan xalqni Men jazolayman. Shundan keyin ular o‘sha yurtdan chiqadilar va bu yerda Menga sajda qiladilar.»* 8 Keyin Xudo unga sunnat ahdini* berdi. Shunday qilib, Ibrohimdan Is’hoq tug‘ildi. Is’hoqni sakkiz kunligida Ibrohim sunnat qildi. Is’hoqdan Yoqub tug‘ildi, u ham sunnat qilindi. Yoqubdan o‘n ikki qabila asoschilari tug‘ildi, ular ham sunnat qilindi.
9 Yoqubning o‘g‘illari o‘zlarining ukalari Yusufga hasad qilib, uni Misrga sotib yubordilar. Ammo Xudo Yusuf bilan birga bo‘lib, 10 uni hamma kulfatlardan saqlab qoldi. Xudo Yusufni shunchalik dono qildiki, u Misr fir’avnining iltifotiga sazovor bo‘ldi. Fir’avn Yusufni butun Misr va o‘zining xonadoni ustidan hokim qilib tayinladi. 11 O‘sha davrda

butun Misr va Kan’on bo‘ylab ocharchilik tarqaldi, ko‘p azob–uqubatlar kelib chiqdi. Ota–bobolarimiz yegulik topa olmay qoldilar. 12 Yoqub, Misrda don bor ekan, deb eshitib qoldi. U o‘g‘illarini, ya’ni bizning bobolarimizni Misrga birinchi bor safarga jo‘natdi. 13 Ular Misrga ikkinchi marta borganlarida, Yusuf akalariga o‘zini tanitdi. Shunday qilib, Yusufning urug‘–aymog‘i fir’avnga ma’lum bo‘ldi. 14 Shundan keyin Yusuf otasi Yoqubni, hamma qarindosh–urug‘larini yoniga chaqirdi. Ular hammasi bo‘lib yetmish besh* kishi edilar. 15 Shunday qilib, Yoqub Misrga ketdi. Yoqub ham, uning o‘g‘illari, ya’ni ota–bobolarimiz ham Misrda vafot etdilar. 16 Ularning suyaklarini Shakam shahriga olib kelib, Ibrohimning maqbarasiga qo‘ydilar. Bu maqbarani Ibrohim shakamlik Xamo‘rning o‘g‘illaridan bir qancha kumushga sotib olgan edi.

17 Xudoning Ibrohimga bergan va’dasi amalga oshadigan payt yaqinlashgani sari, Misrdagi xalqimiz g‘oyat ko‘payib borar edi. 18 Misrni boshqa hukmdor boshqara boshladi. U Yusuf to‘g‘risida hech narsa bilmasdi. 19 Ular ota–bobolarimizga nayrang ishlatdilar. Ota–bobolarimiz chaqaloqlaridan voz kechishlariga to‘g‘ri keldi, chaqaloqlari o‘ldirildi. 20 Shu paytda Muso tug‘ilgan edi. U juda chiroyli bola edi. Ota–onasining uyida Musoni uch oy parvarishlaganlaridan keyin 21 oxiri, voz kechishga majbur bo‘ldilar. Fir’avnning qizi Musoni saqlab olib, o‘z o‘g‘liday tarbiya qildi. 22 Musoga Misrliklarning ilmu ma’rifati o‘rgatildi, u so‘zda ham, ishda ham buyuk odam bo‘ldi.

23 Muso qirq yoshga kirganda, uning yuragida qardoshlari bo‘lgan Isroil xalqini ko‘rish orzusi tug‘ildi. 24 Misrliklardan biri Isroil xalqidan bittasiga shafqatsizlik qilayotganini ko‘rganda, Muso qardoshini himoya qildi. Misrlikni o‘ldirib, qardoshining o‘chini oldi. 25 Muso: «Xudo men orqali xalqimni ozod qilmoqchi, buni xalqim tushunsa kerak», deb o‘yladi. Ammo ular tushunmadilar. 26 Keyingi kuni Muso Isroil xalqidan ikkitasi janjallashayotganini ko‘rib, ularni yarashtirmoqchi bo‘ldi: «Quloq solinglar, ey odamlar, axir, sizlar birodarsizlar! Nega bir–biringizni xafa qilyapsizlar?» 27 Ammo qardoshini xafa qilayotgan odam Musoni turtib dedi: «Kim seni bizning ustimizdan hukmdor yoki hakam qilib qo‘ydi? 28 Kecha Misrlikni o‘ldirganingday meni ham o‘ldirmoqchimisan?»* 29 Muso bu gapni eshitgach, Misrdan qochib ketdi va Midiyon yurtida* musofir bo‘lib yashay boshladi. Bu yurtda Muso ikki o‘g‘il ko‘rdi.

30 Oradan qirq yil o‘tgach, Muso sahrodagi Sinay tog‘i yonida bo‘lganda, buta alangasi ichida unga bir farishta* zohir bo‘ldi*. 31 Muso buni ko‘rib, hayron bo‘ldi. Yaxshiroq ko‘rish uchun butaga yaqin bordi. Shu payt u Egamizning ovozini eshitdi: 32 «Men ota–bobolaringiz — Ibrohim, Is’hoq va Yoqubning Xudosiman.» Muso qo‘rqqanidan titrab, qarashga jur’at etmadi. 33 Shunda Egamiz Musoga dedi: «Oyog‘ingdagi chorig‘ingni yech, chunki sen turgan joy muqaddas yerdir. 34 Xalqimning Misrda chekkan azoblarini ko‘rdim, ularning oh–vohlarini eshitdim. Men ularni ozod qilish uchun keldim. Endi kel, Men seni Misrga yuboraman.»

35 Mana shu Musoni xalq rad qilib, unga: «Kim seni bizga hukmdor va hakam qilib qo‘ydi?» deb aytgandi. Xudoning O‘zi esa Musoni hukmdor va xaloskor qilib yubordi. U buni buta ichida zohir bo‘lgan farishta orqali amalga oshirdi. 36 Muso Isroil xalqini Misrdan olib chiqdi. Misrda, Qizil dengizda va sahroda qirq yil davomida mo‘jizalar va alomatlar ko‘rsatdi. 37 Isroil xalqiga: «Xudo sizlar uchun o‘z xalqingiz orasidan menga o‘xshagan bir payg‘ambar chiqaradi*»*, deb aytgan ham o‘sha Muso edi. 38 Sahroda Isroil xalqi bilan birga yashagan Musodir, Sinay tog‘ida otalarimiz bilan birga turgan, farishta bilan gaplashgan ham udir. Bizga beriladigan Xudoning hayotbaxsh kalomini Muso

farishtadan qabul qildi. 39 Ammo ota–bobolarimiz Musoga itoat etishni istamadilar.
Aksincha, ular Musoni mensimay, ko‘ngillarida Misrga qaytishga moyil bo‘ldilar. 40 Ular
Horunga shunday dedilar: «Biz uchun xudolar yasab ber, ular bizni yo‘lda boshlab
borsin. Bizni Misrdan olib chiqqan Musoga nima bo‘lganini bilmaymiz.»* 41 O‘sha paytda
ular buzoq tasvirini yasadilar, o‘sha butga qurbonlik qildilar. Shunday qilib, qo‘llarining
ijodi oldida ko‘ngilxushlik qildilar. 42 Shu sababdan Xudo ulardan yuz o‘girdi, samoviy
jismlarga sajda qilishsin, deb ularni tark etdi. Zotan, payg‘ambarlar kitobida shunday
yozilgan:

> «Ey Isroil xalqi, sizlar juda ko‘p qurbonliklar keltirasizlar! Men ota–
> bobolaringizni qirq yil sahroda olib yurganimda, ulardan shu qadar ko‘p
> qurbonligu nazrlarni talab qilmadim! 43 Sizlar o‘zingiz yasagan xudolarga —
> Mo‘lax va Rayfon* tasvirlariga topinib yuribsizlar. Shuning uchun Men sizlarni
> Bobil yurtiga surgun qilaman. Qani, endi turinglar! Mo‘laxning chodirini va
> Rayfonning tasviri bo‘lgan yulduzni ko‘tarib olib ketinglar.»*

44 Sahroda ota–bobolarimizning Muqaddas ahd chodiri* bor edi. Bu Chodir, Xudo
Musoga buyurganday, U ko‘rsatgan namuna bo‘yicha yasalgan edi. 45 Keyinroq o‘sha
Chodir otalarimizga berildi. Otalarimiz Yoshua bilan ketganlarida Chodirni o‘zlari bilan
olib ketdilar. O‘shanda Xudo quvib yuborgan xalqlarning yerini otalarimiz tortib olgan
edilar. Chodir shoh Dovud zamonigacha o‘sha yurtda otalarimiz bilan qoldi. 46 Xudoning
marhamatiga sazovor bo‘lgan Dovud: «Yoqubning Xudosiga maskan* qurib beray», deb
Undan izn so‘radi. 47 Ammo Xudoga uyni Sulaymon qurib berdi. 48 Vaholanki, Xudoyi
Taolo inson qo‘llari bilan yasalgan uylarda istiqomat qilmaydi. Xudo payg‘ambar orqali
aytganday:

> 49 «Osmon Mening taxtimdir,
> Yer oyog‘im tagidagi kursidir.
> Menga qanday uy qurib bera olasiz?!
> — demoqda Egamiz. —
> Qaysi joy Menga maskan bo‘la oladi?!
> 50 Axir, hammasini O‘z qo‘llarim bilan yaratganman.»*

51 Sizlar o‘jar xalqsiz! Ey yuraklari, quloqlari sunnat qilinmaganlar!* Sizlar ham, ota–
bobolaringizga o‘xshab, har doim Muqaddas Ruhga qarshi turasizlar. 52 Ota–
bobolaringiz payg‘ambarlarning hammasini quvg‘in qilganlar! Solih Zotning* kelishini
bashorat qilganlarni ular o‘ldirganlar! Endi esa sizlar Solih Zotni sotib, qatl qildingizlar.
53 Xudoning qonunini olgan sizlarsiz. Ammo o‘sha qonun sizlarga farishtalar orqali
berilganiga* qaramay, sizlar unga rioya qilmadingizlar.”

54 Oliy kengash a’zolari Stefanning so‘zlarini eshitib, g‘azabga mindilar, g‘azabdan
tishlarini g‘ijirlatdilar. 55 Ammo Muqaddas Ruhga to‘lgan Stefan osmonga tikilib,
Xudoning ulug‘vorligini ko‘rdi. Iso Xudoning o‘ng tomonida* turar edi.

56 “Qaranglar! — dedi Stefan. — Men osmon ochilganini ko‘ryapman. Inson O‘g‘li*
Xudoning O‘ng tomonida turibdi!”

57 Ular esa qo‘llari bilan quloqlarini berkitib oldilar, so‘ng birdaniga hammalari
ovozlari boricha baqirib, Stefanga tashlandilar. 58 Ular Stefanni shahar tashqarisiga olib

chiqdilar va toshbo‘ron qildilar. Unga qarshi guvohlik berganlar esa choponlarini Shoul* degan yigitning oyoqlari ostiga qo‘ydilar.

59 Ular Stefanni toshbo‘ron qilayotganlarida, Stefan: “Ey Rabbim Iso, ruhimni ol!” deb
ibodat qildi. 60 So‘ngra u tiz cho‘kib, ovozi boricha: “Ey Rabbim Iso! Bu gunohni ularga
yuklamagin!” deb baqirib, jon berdi.

8–BOB

Shoul imonlilar jamoatini quvg‘in qiladi

1 Stefanning o‘limini Shoul* ma’qullagan edi. O‘sha kundanoq Quddusdagi imonlilar
jamoati shafqatsiz quvg‘inlardan azob cheka boshladi. Havoriylardan boshqa hamma
imonlilar Yahudiya va Samariya bo‘ylab tarqalib ketdilar. 2 Taqvodor odamlar Stefanni
dafn qildilar, u uchun qattiq qayg‘urib, aza tutdilar. 3 Shoul esa jamoatni yo‘q qilish
payiga tushgan edi. U uyma–uy yurib, erkagu ayol imonlilarni sudrab olib chiqar, ularni
qamoqxonaga tashlar edi.

Filip Samariyada va’z qiladi

4 Imonlilar tarqalib ketib, Iso haqidagi xabarni har joylarda va’z qilib yurardilar.
5 Filip* Samariyaning bosh shahriga* borib, u yerdagi aholiga Masih to‘g‘risida va’z qildi.
6 Filipni tinglab turgan va qilgan mo‘jizalarini ko‘rgan olomon uning gaplariga diqqat
bilan quloq soldi. 7 Yovuz ruhlar ko‘p odamlarning ichidan chinqirib chiqib ketardi,
ko‘plab shol va cho‘loq odamlar shifo topar edilar. 8 Shunday qilib, o‘sha shaharda katta
shodlik hukm surardi.

9 Shu yerda Shimo‘n degan bir odam yashardi. U anchadan beri sehr–jodular qilib,
Samariya aholisini hayratda qoldirib kelardi. Shu tariqa u o‘zini buyuk odam qilib
ko‘rsatardi. 10 Shahardagi har bir odam — kattayu kichik uning gaplariga diqqat bilan
quloq solar, “Bu odam Xudoning qudratidir, u Buyuk Qudrat deb nom olgan”, deb
aytardi. 11 Shimo‘n uzoq vaqt odamlarni sehr–jodulari bilan ajablantirib kelgani uchun
ham, odamlar unga diqqat bilan quloq solishardi. 12 Ammo Filip Xudoning Shohligi va
Iso Masih to‘g‘risidagi Xushxabarni va’z qilgandan keyin, odamlar Filipga ishondilar.
Erkagu ayol suvga cho‘mdirildi. 13 Hatto Shimo‘n ham imonga keldi. U suvga
cho‘mdirilgandan keyin, yuz berayotgan alomatlaru buyuk mo‘jizalarni ko‘rib, hayratda
qoldi va Filipdan ajralmaydigan bo‘ldi.

14 Quddusdagi havoriylar, Samariya aholisi* Xudoning kalomini qabul qilibdi, deb
eshitganlari uchun, Butrus bilan Yuhannoni ularning oldiga yubordilar. 15 Butrus bilan
Yuhanno borib, Muqaddas Ruhni qabul qilib olinglar, deb Samariyaliklar uchun ibodat
qildilar. 16 Chunki hali Muqaddas Ruh ularning birontasini ham qamrab olmagan edi.
Ular faqat Rabbimiz Iso nomi bilan suvga cho‘mdirilgan edilar, xolos. 17 Shundan keyin
Butrus bilan Yuhanno ularning ustiga qo‘llarini qo‘ydilar. Shu tariqa Samariyaliklar
Muqaddas Ruhni qabul qildilar.

18 Shimo‘n ko‘rdiki, odamlarning boshlariga havoriylar qo‘llarini qo‘yganlarida,
Muqaddas Ruh ularga berilardi. U Butrus bilan Yuhannoga pul taklif qilib, dedi:

19 — Shu qudratdan menga ham beringlar, toki birontasining boshiga qo‘llarimni
qo‘yganimda, o‘sha odam Muqaddas Ruhni qabul qilsin.

20 Ammo Butrus shunday javob berdi:

— Puling o‘zing bilan birga do‘zaxga ravona bo‘lsin, chunki sen, Xudoning in’omini

pulga sotib olsam bo‘ladi, deb o‘ylaysan. 21 Bu ishda sening na ulushing, na haqing bor!
Sening yuraging Xudo nazarida to‘g‘ri emas. 22 Endi tavba qilib, bu fosiq niyatingdan
qayt, “Meni kechirgin”, deb Egamizga ibodat qil, balki yuragingdagi niyatingni U
kechirar. 23 Ko‘rib turibman: yuraging achchiq zardaga to‘la, o‘zing fosiqlik zanjiriga
bog‘langansan.
24 Shimo‘n shunday javob berdi:
— Men uchun Egamizga ibodat qilinglar, tag‘in aytganlaringizdan biri boshimga
tushmasin.
25 Butrus bilan Yuhanno u yerda guvohlik berib, Rabbimiz Iso haqidagi xabarni va’z
qildilar. Shundan keyin Samariyaning ko‘p qishloqlarida Xushxabarni e’lon qilib,
Quddusga qaytib ketdilar.

Filip va Habashistonlik amaldor

26 Shu orada Egamizning bir farishtasi Filipga dedi: “Qani, bo‘l, janubga bor,
Quddusdan G‘azoga olib boradigan sahro yo‘lidan ket.” 27 Filip yo‘lga chiqdi, ketayotib
Habashistonlik bir amaldorni uchratib qoldi. U Habashiston malikasining* bosh
xazinaboni lavozimidagi katta amaldor edi. U sajda qilgani Quddusga kelib, 28 endi uyiga
qaytayotgan edi. Amaldor aravada o‘tirganicha, Ishayo payg‘ambar kitobini o‘qib
ketayotgan edi. 29 Muqaddas Ruh Filipga: “Aravaga yaqinroq bor, uning yonida yur”,
dedi. 30 Filip yugurib, aravaga yetib oldi, amaldorning Ishayo payg‘ambar kitobini
o‘qiyotganini eshitdi. Filip:
— O‘qiyotganingizni tushunyapsizmi? — deb so‘radi.
31 — Birontasi yordam bermasa, tushunarmidim?! — deb javob berdi amaldor. U
Filipga: “Chiq, yonimga o‘tir”, deb taklif qildi. 32 Amaldor o‘qiyotgan Muqaddas bitiklar
parchasi quyidagilar edi:

> “Bo‘g‘izlanishga olib borilgan qo‘yday,
> Jun qirquvchi oldida jim turgan qo‘ziday
> U miq etmadi, og‘zini ochmadi.
> 33 U xo‘rlandi. Adolatdan mahrum qilindi.
> Uning nasli haqida kim o‘ylaydi?
> Yer yuzida uning hayotiga chek qo‘yildi.”*

34 Amaldor Filipdan so‘radi:
— Ayt–chi, payg‘ambar bu gaplarni kim to‘g‘risida aytdi — o‘zi to‘g‘risidami yoki
boshqa birontasi to‘g‘risidami?
35 Shundan keyin Filip tushuntira boshladi, Muqaddas bitiklarning shu qismidan
boshlab, Iso haqidagi Xushxabarni amaldorga so‘zlab berdi. 36-37 Ular yo‘lda
ketayotganlarida, suv bor joyga kelib qoldilar. Shunda amaldor dedi:
— Mana bu yerda suv bor ekan. Suvga cho‘mdirilishimga nima xalaqit beradi?!*
38 Amaldor aravani to‘xtatishga buyurdi. Ular ikkalasi — Filip bilan amaldor suvga
tushdilar, Filip uni suvga cho‘mdirdi.
39 Ular suvdan chiqqanlaridan keyin, Egamizning Ruhi to‘satdan Filipni olib ketdi*.
Amaldor uni qaytib ko‘rmadi, ammo xursand bo‘lganicha, yo‘lida davom etdi. 40 Filip esa
Azotus shahrida* paydo bo‘lib qoldi. U Qaysariyaga* kelguncha, butun o‘lka bo‘ylab o‘tar
ekan, hamma shaharlarda Xushxabarni e’lon qilib boraverdi.

9–BOB

Shoul imonga keladi

1 Shu orada Shoul* Rabbimiz Isoning shogirdlariga qarshi qattiq o‘lim xavfini solib
yurardi. U oliy ruhoniyning huzuriga borib, 2 Damashqdagi sinagogalarga xat yozib
berishini so‘radi. U yerda erkak bo‘ladimi yoki ayolmi — Isoning yo‘lidan yuruvchilarni
topib olsa, ularni bog‘lab Quddusga olib kelishga ijozat so‘ragan edi. 3 Shoul Damashqqa
yaqinlashib qolganda, birdan osmondan tushgan bir nur uning yon–atrofini yoritib
yubordi. 4 Shoul yerga yiqilib, shunday bir ovozni eshitdi:

— Shoul, Shoul! Nega Meni quvg‘in qilyapsan?

5 — Yo Hazratim!* Siz kimsiz? — deb so‘radi Shoul.

— Sen quvg‘in qilayotgan Isoman, — degan javob keldi*. 6 — Endi o‘rningdan tur,
shaharga kir. Nima qilishing kerakligi senga o‘sha yerda aytiladi.

7 Shoulga hamroh bo‘lganlarning tillariga bir so‘z kelmay, to‘xtab qolgan edilar. Ular
ovozni eshitardilar–u, ammo hech kimni ko‘rmasdilar. 8 Shoul yerdan turdi, ko‘zlarini
ochdi, ammo hech narsani ko‘ra olmadi. Ular Shoulni qo‘lidan ushlab, Damashq shahriga
olib bordilar. 9 Uch kungacha Shoulning ko‘zi ko‘rmadi, shu kunlar davomida u na yedi,
na ichdi.

10 Damashqda Isoning Xanoniyo degan shogirdi bor edi. Rabbimiz Iso vahiyda unga
zohir bo‘lib: “Xanoniyo!” deb chaqirdi. “Labbay, Rabbim!” deb javob berdi u. 11 Rabbimiz
Iso Xanoniyoga dedi:

— O‘rningdan tur, To‘g‘ri deb ataluvchi ko‘chaga bor. Yahudoning uyidan Tarsuslik*
Shoul degan odamni so‘ra. Hozir u ibodat qilyapti. 12 Unga vahiy kelgan. Vahiyda u
Xanoniyo degan odamning kelishini ko‘rgan. Uning ko‘zlari ochilishi uchun sen unga
qo‘llaringni qo‘yasan.

13 Xanoniyo esa shunday javob berdi:

— Yo Rabbim, men u odam haqida ko‘pchilikdan eshitgan edim. U Quddusdagi
Sening azizlaringga ko‘p yomonlik qilgan ekan. 14 Bu yerda ham u Sening nomingni tiliga
oladiganlarni qamash uchun bosh ruhoniylardan vakolat olibdi.

15 Rabbimiz Iso esa unga shunday dedi:

— Boraver, u Mening tanlangan qurolimdir. U g‘ayriyahudiylar orasida, shohlar va
Isroil xalqi orasida nomimni mashhur qiladi. 16 U Mening nomim haqi qanchalar azob
chekishi kerakligini uning o‘ziga ko‘rsataman.

17 Shunday qilib, Xanoniyo borib, o‘sha uyga kirdi. U Shoulga qo‘lini qo‘yib, shunday
dedi:

— Birodarim Shoul! Yo‘lingda senga zohir bo‘lgan Rabbimiz Iso meni bu yerga
yubordi, toki sening ko‘zlaring ochilsin, Muqaddas Ruhga to‘lgin.

18 Shu zahoti baliq tangachalariga o‘xshash narsa Shoulning ko‘zlaridan tushdi. U
yana ko‘ra boshladi. U o‘rnidan turib, suvga cho‘mdirildi. 19 Ovqat yeb, quvvatga kirdi.

Shoul Damashqda va’z qiladi

Shoul bir necha kun Damashqdagi imonlilar bilan birga bo‘ldi. 20 U to‘g‘ri sinagogaga
borib: “Iso Xudoning O‘g‘lidir*”, deb va’z qila boshladi. 21 Uning va’zini eshitganlarning
hammasi hayron bo‘lib, shunday deyishardi: “Quddusda Isoning nomini tilga olganlarga
qirg‘in keltirgan odam shu emasmi? Uning bu yerga kelishdan maqsadi — odamlarni

bosh ruhoniylar oldiga bog‘lab olib borish emasmikan?” 22 Ammo Shoulning va’zi tobora
kuchli bo‘lib boraverdi. U Isoning Masih ekanini isbot etib, Damashqda yashaydigan
yahudiylarni esankiratib qo‘ydi.
23 Bir qancha vaqt o‘tgandan keyin, yahudiylar Shoulni o‘ldirish uchun reja tuzdilar.
24 Shoul esa ularning rejasidan xabar topdi. Uni o‘ldirish uchun shahar darvozalarini
kechayu kunduz qo‘riqlardilar. 25 Ammo Shoulning shogirdlari uni kechasi savatga solib,
shahar devoridagi derazadan* tushirib yubordilar.

Shoul Quddusda

26 Shoul Quddusga borgandan keyin, Isoning u yerdagi shogirdlariga qo‘shilishga
harakat qildi. Ammo shogirdlarning hammasi undan qo‘rqishardi. Shoul ham Isoning
shogirdi bo‘lganiga ular ishonmadilar. 27 Shunda Barnabo* Shoulni havoriylarning oldiga
olib bordi. Shoul yo‘lda qanday qilib Rabbimiz Isoni ko‘rganini, Shoulga U qanday
gapirganini, Shoul Damashqda qo‘rqmasdan Iso nomi bilan qanday va’z qilganini
havoriylarga hikoya qilib berdi. 28 Shunday qilib, Shoul ular bilan qoldi va butun Quddus
bo‘ylab qo‘rqmasdan Rabbimiz nomi bilan va’z qilib yurdi. 29 Shoul yunonzabon
yahudiylar bilan ham suhbatlashib, ular bilan munozara qildi. Ammo ular Shoulni
o‘ldirmoqchi bo‘ldilar. 30 Imonlilar bu to‘g‘rida xabar topib, Shoulni Qaysariyagacha* olib
keldilar, keyin uni Tarsus shahriga jo‘natdilar.
31 Butun Yahudiya, Jalila va Samariyadagi imonlilar jamoati tinchlikka erishib,
kuchayib boraverdi. Jamoat Egamizdan qo‘rqib va Muqaddas Ruhdan madad olib,
ko‘payib boraverdi.

Butrus Lo‘d va Yaffada

32 Butrus hamma yoqni aylanib, imonlilarni ko‘rgani borardi. Bir safar u Lo‘d
shahrida* yashaydigan Xudoning azizlari huzuriga tashrif buyurdi. 33 U yerda Butrus
Yeney degan odam bilan uchrashib qoldi. Yeney shol bo‘lib, sakkiz yildan beri
to‘shakdan tura olmas edi. 34 Butrus unga:
— Yeney, Iso Masih senga shifo beryapti: o‘rningdan tur, to‘shagingni yig‘ib qo‘y! —
dedi. Yeney shu zahoti o‘rnidan turib ketdi. 35 Butun Lo‘d shahri va Sharon tekisligining
ahli Yeneyni ko‘rib, Rabbimiz Isoga yuz burdi.
36 Yaffa shahrida* Isoning bir shogirdi bor edi. U ayolning ismi Tavita bo‘lib,
yunonchada Do‘rkas* edi. U ko‘p xayrli ishlar qilardi, muhtojlarga yordam berardi.
37 O‘sha paytda u kasal bo‘lib, vafot etdi. Uning jasadini yuvib, boloxonaga qo‘ydilar.
38 Lo‘d shahri Yaffa shahriga yaqin edi. Shogirdlar Butrus u yerda ekanini eshitdilar va
uning oldiga ikki kishini yuborib: “Iltimos, hayallamay biz tomonga keling”, deb xabar
yubordilar. 39 Butrus o‘rnidan turdi–yu, ular bilan ketdi. Butrus yetib kelgach, uni
boloxonaga olib chiqdilar. Hamma bevalar Butrusning yonida yig‘lab turganlaricha,
kamzullar va boshqa kiyimlarni ko‘rsatib: “Tavita* tirikligida bularni tikkan edi”,
derdilar. 40 Butrus ularni tashqariga chiqarib yubordi. Shundan keyin u tiz cho‘kib,
ibodat qildi–da, jasadga o‘girilib: “Tavita, tur o‘rningdan!” dedi. Shunda Tavita ko‘zlarini
ochdi, Butrusni ko‘rib, qaddini rostlab o‘tirdi. 41 Butrus qo‘lini Tavitaga uzatib, o‘rnidan
turishiga yordamlashdi. Keyin Xudoning azizlarini va bevalarni chaqirib, tirilgan ayolni
ko‘rsatdi. 42 Bu voqea butun Yaffaga ma’lum bo‘ldi va ko‘pchilik Rabbimiz Isoga imon
keltirdi. 43 Butrus ancha vaqt Yaffa shahrida Shimo‘n degan bir ko‘nchining* uyida turdi.

10–BOB

Butrus va Korniliy

1 Qaysariyada* Korniliy degan bir odam bor edi. U Rim lashkaridagi “Italiya” nomli
bo‘linmada yuzboshi edi. 2 Korniliy taqvodor odam bo‘lib, uning o‘zi ham, oilasi ham
Xudodan qo‘rqardi*. U kambag‘al yahudiylarga ko‘p xayr–sadaqa berar, doimo Xudoga
ibodat qilardi. 3 Bir kuni soat uchlarda* unga vahiy keldi. Xudoning farishtasi kirib
kelayotganini u aniq ko‘rdi. Farishta: “Korniliy!” deb chaqirdi.
4 Korniliy qo‘rquv ichida unga tikilib qarab:
— Labbay, Hazrat! — dedi.
Farishta unga shunday dedi:
— Sening ibodatlaring va xayr–sadaqalaring Xudoga ma’qul bo‘ldi. 5 Endi Yaffaga
odam yuborib, Butrus degan odamni* chaqirtirib kel. 6 Butrus bir ko‘nchining* uyida
mehmon bo‘lib turibdi. Shimo‘n ismli o‘sha ko‘nchining uyi dengiz bo‘yida*.
7 Korniliyga gapirgan farishta ketdi. Korniliy xizmatkorlaridan ikkitasini va unga
xizmat qiladigan taqvodor, ishonchli bir askarini chaqirdi. 8 Ro‘y bergan hodisani ularga
aytib berib, ularni Yaffaga jo‘natdi.
9 Keyingi kun tush paytida* ular yo‘lda davom etib, shaharga yaqinlashganlarida,
Butrus ibodat qilgani tomga chiqqan edi*. 10 U ochqab, biron narsa tanovul qilgisi keldi.
Ovqat tayyorlanayotganda, Butrusga vahiy keldi. 11 U osmon ochilganini, katta
dasturxonga o‘xshash bir narsa to‘rt burchagidan osilgan holda yerga tushib
kelayotganini ko‘rdi. 12 Uning ichida turli hayvonlar, sudralib yuruvchilar va qushlar bor
edi. 13 Shu payt u: “O‘rningdan tur, Butrus, so‘yib yegin” degan ovozni eshitdi. 14 Ammo
Butrus dedi:
— Aslo unday qilmayman, Egam! Men hech qachon harom yoki nopok narsalarni*
yemaganman!
15 O‘sha ovoz yana Butrusga: “Xudo halol deb aytgan narsalarni sen harom demagin”,
deya gapirdi. 16 Bu suhbat uch marta takrorlandi. Shunda dasturxon birdan osmonga
olindi.
17 Butrus, bu vahiyning ma’nosi nima ekan, deb esankirab turganda, Korniliy
yuborgan odamlar kelib qoldilar. Ular ko‘nchi Shimo‘nning uyi qayerdaligini bilib olib,
darvoza oldida turgan edilar. 18 Ular baland ovoz bilan:
— Butrus degan mehmon shu yerdami? — deb so‘radilar.
19 Butrus hali ham vahiy haqida o‘ylab o‘tirgan edi. Shunda Muqaddas Ruh unga
dedi:
— Qara, uchta odam seni izlab keldi. 20 Endi o‘rningdan tur, pastga tush, hech
ikkilanmay ular bilan birga bor. Ularni Men jo‘natganman.
21 Shunday qilib, Butrus pastga tushib, ularga dedi:
— Sizlar izlayotgan odam menman. Nima sababdan keldingizlar?
22 — Bizni Rim yuzboshisi Korniliy jo‘natdi, — deb javob berdi ular. — U solih,
Xudodan qo‘rqadigan odam, butun yahudiy xalqi orasida katta obro‘ga ega. Xudoning
farishtasi unga: “Butrusni uyingga taklif qil, uning aytganlarini eshitgin”, deb aytibdi.
23 Shundan keyin Butrus ularni ichkariga taklif etib, mehmon qildi.
Keyingi kuni Butrus ular bilan birga yo‘lga otlandi. Yaffalik ba’zi imonlilar Butrus
bilan birga ketdilar. 24 Ertasi kuni ular Qaysariyaga kirib keldilar. Korniliy ularni

kutayotgan edi. U qarindoshlari va yaqin do‘stlarini taklif qilgan edi. 25 Butrus uyga kirib,
Korniliyga ro‘para keldi. Shunda Korniliy Butrusning oyoqlariga bosh urib, unga ta’zim
qildi. 26 Ammo Butrus unga:
— O‘rningdan tur, men ham bir bandaman, — deb uni turg‘izib qo‘ydi.
27 Butrus u bilan gaplasharkan, ichkariga kirdi va u yerda bir talay odam
to‘planganini ko‘rdi. 28 Butrus ularga shunday dedi:
— O‘zlaringiz bilasizlarki, yahudiy odam boshqa xalqdan bo‘lgan odam bilan aloqa
bog‘lashi, unikiga borishi qonunimizga xilofdir. Ammo Xudo endi menga hech bir
kimsani harom yoki nopok deb hisoblamaslikni ayon qildi. 29 Shuning uchun menga
odam yuborganlaringizda, hech qanday e’tiroz bildirmay keldim. Endi bilsam bo‘ladimi,
nima uchun meni chaqirtirdingizlar?
30 Korniliy shunday javob berdi:
— To‘rt kun ilgari xuddi shu paytda — soat uchlarda uyimda ibodat qilayotgan edim.
Birdan* ro‘paramda oppoq kiyim kiygan bir odam paydo bo‘ldi. 31 U menga shunday
dedi: “Korniliy, sening ibodating Xudoga yetib bordi, xayr–sadaqalaringni U ma’qul
ko‘rdi. 32 Endi Yaffaga odam yuborib, Butrus degan odamni chaqirtirib kel. U Shimo‘n
ismli ko‘nchining uyida mehmon bo‘lib turibdi. Shimo‘nning uyi dengiz bo‘yida*.”
33 Shuning uchun darhol sizga odam yubordim, siz ham olijanoblik qilib, keldingiz.
Egamiz sizga aytishni buyurgan hamma narsani eshitish uchun endi hammamiz
Xudoning huzurida to‘plandik.

G‘ayriyahudiylar Xushxabarni eshitadilar

34 Butrus ularga gapira boshladi:
— Haqiqatan ham, Xudo tarafkashlik qilmasligini bilaman. 35 Har bir elatda Xudodan
qo‘rqadigan va to‘g‘ri ishlarni qiladigan har bir odam Unga ma’quldir. 36 U Isroil xalqiga
yuborgan xabarni bilasizlar. Tinchlik keltiradigan bu Xushxabarni Xudo Iso Masih orqali
e’lon qildi. Iso Masih hammaning Rabbiysidir. 37 Yahudiya bo‘ylab nimalar yuz berganini
bilasizlar. Bu hodisalarning hammasi Yahyoning cho‘mdirilish to‘g‘risidagi xabaridan
keyin Jalila hududida boshlangan edi. 38 Xudo Nosiralik Isoni Muqaddas Ruh va kuch–
qudrat bilan qanday to‘ldirganini bilasizlar. Iso hamma yoqqa borib, yaxshi ishlar qildi,
iblisning hukmronligidan azob chekkanlarni shifoladi, chunki Xudo U bilan edi. 39 U
Yahudiya va Quddusda qilgan ishlarning hammasiga biz guvohmiz. Shundan keyin Isoni
yog‘ochga* mixlab, o‘ldirdilar. 40 Ammo Xudo Uni uchinchi kuni tiriltirib, zohir qildi.
41 Iso hammaga emas, faqat bizga zohir bo‘ldi. Chunki Xudo bizni Iso haqida guvohlik
berishimiz uchun tanlagandi. Iso tirilgandan keyin biz U bilan yeb–ichdik. 42 U bizga:
“Xalqlarga va’z qilib, guvohlik beringlar. O‘liklar va tiriklarni hukm qilish uchun Xudo
Meni tayinlaganini ularga aytinglar”, — deb buyurdi. 43 Barcha payg‘ambarlar ham Iso
to‘g‘risida guvohlik bergan edilar. Isoga ishongan har bir odamning gunohlari Uning
nomi tufayli kechiriladi, deb aytgan edilar.

G‘ayriyahudiylar Muqaddas Ruhni qabul qiladilar

44 Butrus hamon gapirar ekan, uning so‘zlarini eshitayotganlarni Muqaddas Ruh
qamrab oldi. 45 Xudo g‘ayriyahudiylarga ham Muqaddas Ruhni in’om qilib berganini
Butrus bilan birga kelgan yahudiy imonlilar* ko‘rib hayratda qoldilar. 46 Chunki
g‘ayriyahudiylar boshqa* tillarda gaplashayotganini va Xudoni ulug‘layotganlarini ular
eshitib turardilar. Shunda Butrus dedi:

47 — Bu odamlar, xuddi biz singari, Muqaddas Ruhni qabul qildilar. Shunday ekan,
ularning suvga choʻmdirilishiga kim toʻsqinlik qila oladi?!
48 Shunday qilib, Butrus ularga, Iso Masih nomi bilan suvga choʻminglar, deb buyruq
berdi. Soʻng ular Butrusdan bir necha kun qolishini iltimos qildilar.

11–BOB

Quddusdagi imonlilar jamoatiga Butrusning xabari

1 Havoriylar va Yahudiyadagi imonlilar: “Gʻayriyahudiylar ham Xudoning kalomini
qabul qilibdilar” degan xabarni eshitdilar. 2 Butrus Quddusga borganda, yahudiy
imonlilar* unga ta’na qildilar:
3 — Siz sunnatsiz odamlarnikida mehmon boʻlibsiz, ular bilan birga yeb–ichibsiz!
4 Shunda Butrus ularga yuz bergan voqeani batafsil tushuntira boshladi:
5 — Men Yaffa shahrida ibodat qilayotgan edim, bir payt hushimdan ketib, vahiy
koʻribman. Osmondan katta dasturxonga oʻxshash bir narsa toʻrt burchagidan osilgan
holda oldimga tushib keldi. 6 Men oʻsha narsaning ichiga yaxshilab qaradim va unda turli
xil chorva va yovvoyi hayvonlarni, sudralib yuruvchilar va qushlarni koʻrdim. 7 Oʻshanda
bir ovoz menga: “Tur, Butrus, soʻyib yegin” deganini eshitdim. 8 Men shunday javob
berdim: “Aslo unday qilmayman, Egam! Men hech qachon harom yoki nopok narsalarni*
ogʻzimga olmaganman!” 9 Ammo oʻsha ovoz ikkinchi marta eshitilib: “Xudo halol deb
aytgan narsalarni sen harom deb aytmasliging kerak”, deb osmondan gapirdi. 10 Bu
suhbat uch marta takrorlandi. Shunda dasturxonga oʻxshash oʻsha narsa yana osmonga
olindi. 11 Xuddi shu paytda Qaysariyadan yuborilgan uchta odam men turgan uyga yetib
kelgan edi. 12 Muqaddas Ruh menga: “Hech ikkilanmay bu odamlar bilan birga bor”, deb
aytdi. Bu olti birodar men bilan birga borib, oʻsha odamning uyiga kirdi. 13 U odam uyida
farishta paydo boʻlganini, uning oʻzi bu farishtani koʻrganini bizga soʻzlab berdi. Farishta
unga shunday debdi: “Yaffaga odam yuborib, Butrus degan odamni* chaqirtirib kel. 14 U
senga aytadigan xabar orqali oʻzing va oilang najot topasizlar.” 15 Men gapimni
boshlashim bilanoq, Muqaddas Ruh oldin bizni qamrab olgani singari, ularni ham
qamrab oldi. 16 Shunda men Rabbimiz Isoning: “Yahyo suvga choʻmdirgan edi, sizlar esa
Muqaddas Ruhga choʻmdirilasizlar” degan soʻzlarini esladim*. 17 Biz Rabbimiz Iso
Masihga imon keltirganimizda, Xudo bizga bergan in’omni ularga ham bergan boʻlsa,
men kim boʻlibmanki, Xudoga qarshilik qilsam?!
18 Ular bu soʻzlarni eshitib, jim boʻlib qoldilar. Soʻng Xudoga hamdu sano aytib:
— Xudo hatto gʻayriyahudiylarni ham hayotga eltadigan tavbaga olib boribdi, —
dedilar.

Antioxiyadagi imonlilar jamoati

19 Stefan oʻldirilgandan keyin boshlangan quvgʻinlar oqibatida imonlilar Finikiya,
Kipr va Antioxiyaga tarqalib ketdilar. Ular Iso haqidagi xabarni yahudiylardan boshqa
hech kimga aytmasdilar. 20 Ularning orasida Kipr va Kirineyadan Antioxiyaga* kelgan
ba’zi imonlilar bor edi. Ular Rabbimiz Iso toʻgʻrisida u yerdagi gʻayriyahudiylarga* ham
va’z qildilar. 21 Egamizning qudrati ularda bor edi, shuning uchun koʻpchilik imonga
kelib, Rabbimizga yuz burdi. 22 Bu yangilik Quddusdagi imonlilar jamoatiga yetib keldi.
Jamoatdagilar Barnaboni Antioxiyaga joʻnatdilar. 23 U kelib, Xudoning marhamatini
koʻrganidan xursand boʻldi. Hammaga: “Chin yurakdan Rabbimiz Isoga sadoqatingizni

saqlab qolinglar”, deb nasihat qildi. 24 U Muqaddas Ruhga va imonga to‘la, olijanob odam
edi. Juda ko‘p odamlar Isoni Rabbim deb imonga keldilar.
25 Shundan keyin Barnabo Shoulni* izlab Tarsus shahriga ketdi. U Shoulni topgandan
keyin, uni Antioxiyaga olib keldi. 26 Shunday qilib, Barnabo bilan Shoul bir yil davomida
u yerdagi jamoat bilan bir joyga yig‘ilib, bir qancha odamlarga ta’lim berdilar.
Shogirdlarga birinchi marta Antioxiya shahrida “masihiylar” deb nom berildi.
27 O‘sha paytda Quddusdan Antioxiyaga payg‘ambarlar keldilar. 28 Ulardan biri —
Xagabus degani o‘rtaga chiqib, butun olamda qattiq ocharchilik bo‘lishini Muqaddas Ruh
orqali bashorat qildi. (Uning bashorati Qaysar* Klavdiy* hukmronligi davrida amalga
oshdi.) 29 Shogirdlar, imkonimiz boricha Yahudiyada yashaydigan imonli
birodarlarimizga yordam jo‘natamiz, deb qaror qildilar. 30 Ular aytganlarini qilib,
Barnabo va Shoul orqali Quddusdagi jamoat oqsoqollariga hadyalar yubordilar.

12–BOB

Yoqub o‘ldiriladi, Butrus qamoqqa tashlanadi

1 Xuddi shu paytda shoh Hirod* imonlilar jamoatining ba’zi a’zolarini quvg‘in qila
boshladi. 2 U Yuhannoning akasi Yoqubni* qilich bilan o‘ldirtirdi. 3 Hirod ko‘rdiki, bu
yahudiylarga ma’qul kelyapti, shunday qilib, u Butrusni hibsga oldi. Bu voqea
Xamirturushsiz non bayrami kunlarida yuz berdi. 4 U Butrusni qamatib, to‘rt kishidan
iborat to‘rt guruh askarni qorovul qilib qo‘ydi. Fisih bayramidan* so‘ng uni xalqning
oldiga olib chiqib, hukm qilishni rejalashtirgan edi. 5 Butrus hibsda ekan, jamoat u uchun
Xudoga chin dildan ibodat qildi.

Butrus qamoqdan qutuladi

6 Hirod Butrusni xalq oldiga olib chiqmoqchi bo‘ldi. O‘sha kundan oldingi tunda
Butrus ikki soqchi o‘rtasida uxlayotgan edi. U ikkita zanjir bilan kishanlangan,
qamoqxona eshigida soqchilar navbatchilik qilishardi. 7 Birdan Egamizning farishtasi
zohir bo‘lib, hujrada nur porlab ketdi. Farishta Butrusning yonboshiga turtib uyg‘otdi
va: “Tezda o‘rningdan tur!” dedi. Shunda kishanlar Butrusning bilaklaridan tushib ketdi.
8 Farishta unga:

— Kamaringni bog‘la, chorig‘ingni kiy, — dedi. Butrus aytilganday qildi. Keyin
farishta unga:

— Choponingni kiyib, ortimdan yur, — dedi. 9 Butrus farishtaga ergashib,
qamoqxonadan chiqdi. Ammo u farishtaning bu ishlari haqiqat ekanini anglamasdan,
“vahiy ko‘ryapman, shekilli”, deb o‘ylardi. 10 Ular birinchi va ikkinchi darvoza soqchilari
oldidan o‘tgandan keyin, shaharga olib boradigan temir darvoza oldiga keldilar. Darvoza
o‘z–o‘zidan ularga ochildi. Ular tashqariga chiqib, so‘qmoq bo‘ylab ketdilar. Birdan
farishta Butrusning oldida ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. 11 Butrus shu zahoti o‘ziga kelib: “Endi
ishonchim komilki, Egamiz O‘zining farishtasini yuborib, meni Hirodning qo‘lidan,
yahudiy xalqining adovatidan qutqaribdi”, dedi.
12 Butrus shularni anglab, Maryamning uyiga yo‘l oldi. Maryam Yuhannoning onasi
edi. Yuhannoning ikkinchi ismi Mark edi. Maryamning uyida ko‘pchilik to‘planib, ibodat
qilishayotgan ekan. 13 Butrus darvozani taqillatgan edi, Roda ismli qiz xabar olgani
chiqdi. 14 Qiz Butrusning ovozini tanigach, shunchalik xursand bo‘lib ketdiki, darvozani
ochish o‘rniga, ichkariga yugurib kirdi–da, Butrus darvoza oldida turibdi, deb e’lon qildi.

15 Ular qizga:
— Aqlingni yeb qo‘yibsan, — dedilar. Ammo qiz gapida turib olgach, ular:
— U Butrusning farishtasi*, — deb javob berdilar.
16 Butrus darvozani taqillatishda davom etdi. Ular darvozani ochib, Butrusni
ko‘rdilar–u, hayron bo‘lib qoldilar. 17 Butrus qo‘li bilan “jim” degan ishorani qildi va
Egamiz uni qanday qilib zindondan ozod qilganini so‘zlab berdi. So‘ngra “Bu voqeani
Yoqubga* va boshqa imonlilarga aytinglar”, deb qo‘shib qo‘ydi. Shundan keyin Butrus u
yerdan chiqib, boshqa yerga bordi.
18 Tong otgach, vahimali shovqin–suron ko‘tarildi. Askarlar bir–biridan: “Butrus
qayerga g‘oyib bo‘ldi?” deb so‘rardilar. 19 Hirod Butrusni izlashga buyruq berdi, ammo
uni topa olmadilar. Hirod soqchilarni so‘roq qilib, ularni o‘limga mahkum qildi.

Hirodning o‘limi

Shundan keyin Hirod Yahudiyadan Qaysariyaga* borib, o‘sha yerda turib qoldi.
20 Shoh Hirod Tir va Sidon aholisidan qattiq g‘azablandi. Bu shaharlar oziq–ovqat
bo‘yicha Hirodning shohligiga qaram bo‘lgani uchun, Tir va Sidon vakillari
maslahatlashib, Hirod bilan ko‘rishgani keldilar. Ular saroy noziri Blastusni o‘z
tomoniga og‘dirib olganlaridan keyin, Hirod bilan sulh tuzmoqchi edilar. 21 Hirod ularni
qabul qiladigan kuni shohona liboslarini kiyib, taxtiga o‘tirdi–da, ularga nutq so‘zladi.
22 Odamlar uning bu nutqini eshitib: “Inson emas, balki xudo gapiryapti!” deb xitob
qildilar. 23 Hirod Xudoni sharaflamagani uchun o‘sha zahotiyoq Egamizning farishtasi
uni urdi. Hirod qurtlarga yemish bo‘lib olamdan o‘tdi.
24 Xudoning kalomi esa tobora yoyilib, Isoga ergashuvchilar ko‘payib borardi.
25 Barnabo bilan Shoul* Quddusda topshiriqni bajarib bo‘lishgach*, Antioxiyaga
qaytdilar. Ular o‘zlari bilan birga Yuhannoni ham olib keldilar. Yuhannoning ikkinchi
ismi Mark edi.

13–BOB

Barnabo bilan Shoul safarga jo‘natiladi

1 Antioxiyadagi imonlilar jamoatida payg‘ambarlar va muallimlar ham bor edi.
Barnabo, Qoracha laqabli Shimo‘n, Kirineyalik Lukiyos, viloyat hukmdori* Hirod* bilan
birga o‘sgan Manaxim va Shoul* shular jumlasidan edi. 2 Ular Egamizga sajda qilib, ro‘za
tutar ekanlar, Muqaddas Ruh ularga shunday dedi: “Barnabo bilan Shoulni Menga
bag‘ishlanglar, toki ular Men tayinlagan ishni bajarsinlar.” 3 Ular ro‘za tutib, ibodat
qildilar, so‘ng qo‘llarini Barnabo bilan Shoulga qo‘yib, ikkovini safarga jo‘natdilar.

Kiprda

4 Muqaddas Ruh buyrug‘iga ko‘ra, Barnabo bilan Shoul yo‘lga tushdilar*. Ular
Selevkiya shahriga* borib, u yerdan kemada Kiprga suzib ketdilar. 5 Salamis shahriga
kelganlaridan keyin, yahudiylarning sinagogalarida Xudoning kalomini va’z qildilar.
Yuhanno* ham ular bilan birga bo‘lib, xizmatda yordam berar edi.
6 Ular butun orolni u boshidan bu boshigacha kezib chiqib, Pafos shahriga keldilar. U
yerda Baryoshua degan sehrgarga duch keldilar. U odam yahudiylarning soxta
payg‘ambari edi. 7 Baryoshua orolning hokimi Sergiyus Pavlusning* yaqinlaridan biri
edi. Sergiyus Pavlus aqlli odam edi. U Barnabo bilan Shoulni huzuriga chaqirib,

Xudoning kalomini eshitmoqchi bo‘ldi. 8 Ammo sehrgar Elimos Barnabo bilan Shoulga
qarshi chiqdi. (Elimos Baryoshuaning yana bir ismi bo‘lib, yunonchada “sehrgar”
demakdir.) Elimos hokimni imondan toydirishga harakat qildi. 9 Shoul, ya’ni Pavlus*,
Muqaddas Ruhga to‘lib, sehrgarga tik boqib 10 dedi:

— Ey iblis o‘g‘li! Sen har qanday haqiqatning dushmanisan, yuraging ayyorlik va
yaramasliklarga to‘la. Egamizning to‘g‘ri yo‘lini buzib ko‘rsatishni qachon bas qilasan?!
11 Endi eshit: Egamizning qo‘li senga qarshi ko‘tarilgan, sen ma’lum bir vaqtgacha ko‘r
bo‘lib qolasan, quyosh nurini ko‘rmaysan.

Shu zahoti Elimosning ko‘zi oldi xiralashib, qorong‘i bo‘ldi. Elimos u yoq–bu yoqni
paypaslab, qo‘lidan yetaklab yuradigan birontasini izladi. 12 Hokim yuz bergan voqeani
ko‘rib, imonga keldi, chunki u Rabbimiz Iso haqidagi ta’limotdan hayratga tushgan edi.

Pisidiyadagi Antioxiya shahrida

13 Pavlus bilan uning hamrohlari Pafos shahridan suzib, Pamfiliyadagi Perga
shahriga keldilar. Yuhanno* shu yerda ularni tark etib, Quddusga qaytdi. 14 Qolganlar
esa Pergadan jo‘nab, Pisidiyadagi Antioxiya shahriga keldilar. Shabbat kuni ular
sinagogaga kirib o‘tirishdi. 15 Tavrot va Payg‘ambarlar bitiklaridan* qiroat tugagach,
sinagoganing yo‘lboshchilari: “Birodarlar, agar bizga biror nasihatingiz bo‘lsa,
marhamat”, deb ularga xabar yubordilar. 16 Pavlus o‘rnidan turib, qo‘li bilan “jim” degan
ishorani qildi, so‘ng so‘z boshladi: “Ey Isroil xalqi! Xudodan qo‘rqadigan* boshqa xalqlar,
quloq solinglar! 17 Mana shu Isroil xalqining Xudosi bizning ota–bobolarimizni tanlab
oldi. Ular Misrda musofir bo‘lib yashagan vaqt davomida Xudo ulardan buyuk xalq
yaratdi. Buyuk qudrati bilan ularni Misrdan olib chiqdi. 18 Qirq yil davomida Xudo
ularning sahrodagi qilmishlariga chidadi*. 19 U Kan’on yurtida yetti elatni* qirib tashlab,
ularning yurtini Isroil xalqiga mulk qilib berdi. 20 Bularning hammasi taxminan 450 yil*
davom etdi.

Bundan keyin Xudo ularga Shomuil payg‘ambar zamonigacha hakamlarni berdi.
21 Keyin Isroil xalqi shoh so‘ragan edi, Xudo ularga Kish o‘g‘li Shoulni shoh qilib berdi.
Shoul Benyamin qabilasidan bo‘lib, qirq yil hukmronlik qildi. 22 Xudo Shoulni taxtdan
tushirgandan keyin, Dovudni Isroil xalqining shohi qildi. Xudo u haqda shunday degan
edi: «Essay o‘g‘li Dovudni O‘zimning ko‘nglimga mos deb topdim. Dovud Mening hamma
xohishlarimni bajo qiladi.»* 23 Xudo bergan va’dasiga muvofiq, Dovud naslidan Isoni
Isroil xalqiga najotkor qilib yubordi. 24 Iso xizmatini boshlamasdan oldin, Yahyo butun
Isroil xalqiga, gunohlaringizdan qaytinglar, suvga cho‘minglar, deb va’z qildi. 25 Yahyo
xizmatini yakunlayotib: «Sizlar meni kim deb bilasizlar? Men va’da qilingan Zot
emasman. U mendan keyin keladi. Men Uning choriqlarini yechib qo‘yishga ham
arzimayman», degan edi*.

26 Ey birodarlarim, Ibrohim avlodlari! Ey Xudodan qo‘rqadigan boshqa xalqlar! Najot
haqidagi bu xabar bizga berilgan. 27 Ammo Quddus aholisi va ularning hukmdorlari
Isoning kimligini tanimadilar. Garchi ular har Shabbat kuni o‘qilayotgan
payg‘ambarlarning so‘zlarini eshitsalar–da, payg‘ambarlar Iso haqida yozganini ular
tushunmadilar. Isoni o‘limga mahkum qilib, payg‘ambarlarning bashoratlarini amalga
oshirdilar. 28 O‘limga mahkum qilish uchun ular sabab topa olmagan bo‘lsalar ham,
Pilatdan* Uni o‘ldirishni talab qildilar. 29 U to‘g‘rida yozilgan har bir narsani amalga
oshirganlaridan keyin, jasadini yog‘ochdan* tushirib, qabrga qo‘ydilar. 30 Ammo Xudo

Uni o‘likdan tiriltirdi. 31 Bir necha kun U Jaliladan Quddusga O‘zi bilan kelganlarga zohir
bo‘lib turdi. Hozir ular Isroil xalqiga guvohlik beryaptilar.
32-33 Barnabo bilan men esa bu Xushxabarni sizlarga e’lon qilmoqdamiz: Xudo Isoni
tiriltirdi! Shu orqali ota–bobolarimizga bergan va’dasini ularning farzandlari bo‘lmish
bizlar uchun bajardi. Bu haqda Zaburning ikkinchi sanosida shunday yozilgan:

«Sen Mening O‘g‘limsan,
Bugun Men Senga Ota bo‘ldim.»*

34 Axir, Xudo, Uni o‘likdan tiriltiraman, Uni qabrda chiritmayman, deb va’da bergan edi.
U shunday degan edi:

«Dovudga va’da qilgan tabarruk barakalarni sizlarga beraman.»*

35 Boshqa bir sanoda bu yanada to‘liqroq tushuntirilgan:

«Taqvodoringni* qabrda chiritmaysan.»*

36 Darvoqe, Dovud o‘z vaqtida Xudoning maqsadi uchun xizmat qilgan edi. Dovud vafot
etgach, ota–bobolari yoniga dafn qilindi. Uning tanasi qabrda chiridi. 37 Ammo Xudo
tiriltirgan Isoning tanasi chirimadi. 38 Shuning uchun, ey birodarlarim, eshitinglar!
Gunohlarimiz Iso orqali kechirilishini biz sizlarga e’lon qilmoqdamiz. 39 Isoga ishongan
har bir kishi hamma gunohlaridan U orqali oqlanadi. Musoning qonuni orqali esa
oqlanib bo‘lmaydi. 40 Ehtiyot bo‘linglar, toki payg‘ambarlar aytgan quyidagi so‘zlar
boshingizga tushmasin:

41 «Qaranglar, ey mazaxchilar!
Hayratda qolib o‘linglar!
Sizning davringizda Men shunday bir ish qilamanki,
Eshitsangiz quloqlaringizga ishonmaysizlar.»*”

42 Pavlus bilan Barnabo sinagogadan chiqar ekanlar, xalq ularga: “Kelgusi Shabbat
kuni ham shu narsalar to‘g‘risida gapirib bersangizlar”, deb iltimos qildilar.
43 Sinagogadagi yig‘indan keyin xalq tarqaldi. Pavlus bilan Barnaboga ko‘plab yahudiylar
va yahudiy diniga kirgan* taqvodorlar ergashdilar. Pavlus bilan Barnabo ularga,
Xudoning marhamati ostida yashashni davom ettiringlar, deb dalda berdilar.
44 Keyingi Shabbat kuni ham deyarli butun shahar Rabbimiz Iso haqidagi xabarni
eshitish uchun yig‘ildi. 45 Yahudiylar shunchalik ko‘p odamni ko‘rib, qattiq hasad qila
boshladilar. Pavlusning aytganlariga qarshi chiqib, uni haqoratladilar. 46 Shunda Pavlus
bilan Barnabo ikkovi jasorat bilan shunday dedilar:
— Xudoning kalomini birinchi navbatda sizlarga bildirishimiz kerak edi. Ammo
sizlar Xudoning kalomini rad qildingizlar va o‘zlaringizni abadiy hayotga noloyiq deb
bildingizlar. Shuning uchun biz g‘ayriyahudiylarning oldiga ketyapmiz. 47 Egamiz bizga
shunday amr bergan edi:

“Yerning chetigacha najotni olib boringlar deb,
Men sizlarni g‘ayriyahudiylarga nur qilaman.”*

48 G‘ayriyahudiylar bu gapni eshitib, xursand bo‘ldilar. Ular Rabbimiz Iso haqidagi
xabarni izzat–hurmat bilan qabul qildilar. Abadiy hayot uchun tanlanganlarning
hammasi imonga keldi. 49 Shunday qilib, Rabbimiz Iso haqidagi xabar yurt bo‘ylab
yoyilib boraverdi. 50 Ammo yahudiylar shaharning yuqori martabali, Xudodan
qo‘rqadigan* ayollarini va e’tiborli erkaklarini qayrab, Pavlus bilan Barnaboni ta’qib
qilib, ularni yurtdan quvib chiqarishga undadilar. 51 Havoriylar esa ogohlantirish
tariqasida oyoqlarining changini qoqib*, Ikoniya shahriga ketdilar. 52 Antioxiyadagi
shogirdlar sevinch va Muqaddas Ruhga to‘lib boraverdilar.

14–BOB

1 Xuddi shunga o‘xshash voqea Ikoniya shahrida* yuz berdi: Pavlus bilan Barnabo
sinagogaga kirib, otashin va’z aytdilar. Natijada bir qancha yahudiylar bilan
g‘ayriyahudiylar* imonga keldilar. 2 Ammo imonga kelmagan yahudiylar
g‘ayriyahudiylarni qayrab, ularni imonlilarga qarshi qo‘zg‘atdilar. 3 Pavlus bilan Barnabo
bu yerda uzoq vaqt qolib, Rabbimiz Iso haqida jasorat bilan gapiraverdilar. Rabbimiz
ham ularga mo‘jizalar va alomatlar ko‘rsatish qudratini berib, O‘zining marhamati
haqidagi xabarni ular orqali tasdiqladi. 4 Shahar aholisi esa ikkiga bo‘lindi: ba’zilari
yahudiylar tomonga o‘tdi, boshqalari esa havoriylarga qo‘shildi.
5 Shundan keyin yahudiylar va g‘ayriyahudiylar o‘z yo‘lboshchilari bilan birga
havoriylarga hamla qilib, ularni toshbo‘ron qilmoqchi bo‘ldilar. 6 Havoriylar bu to‘g‘rida
bilib qolganlaridan keyin Likoniyaning boshqa hududlariga qochib ketdilar. Ular Listra
va Darba shaharlarida va ularning yon–atrofidagi joylarda ham 7 Xushxabarni va’z
qilishda davom etdilar.

Listra va Darba shaharlarida

8 Listra shahrida bir odam bo‘lib, oyoqlarini qimirlata olmasdan o‘tirardi. U tug‘ma
mayib bo‘lib, hech qachon yurmagan edi. 9 Pavlus gapirayotganda, u quloq solib o‘tirgan
edi. Pavlus unga tikilib qaradi. U odamning shifo topishiga ishonchi borligini ko‘rib,
10 unga baland ovozda dedi:
— O‘rningdan tur!*
U odam sakrab o‘rnidan turdi–da, yura boshladi. 11 Olomon Pavlusning qilgan ishini
ko‘rgach, Likoniy tilida: “Xudolar bizning oldimizga inson qiyofasida kelibdi!” deb
shovqin soldilar. 12 Ular Barnaboni Zevs, Pavlus notiq bo‘lgani uchun uni Xermes* deb
atashdi. 13 Zevsning ma’badi shahar tashqarisida edi. Zevs ruhoniysi shahar
darvozalariga buqalar va gulchambarlar olib keldi. Ruhoniy bilan olomon qurbonlik
nazr qilmoqchi bo‘ldilar. 14 Havoriylar Barnabo bilan Pavlus buni eshitib, qattiq iztirob
chekib, kiyimlarini yirtdilar*, olomon orasiga yorib kirdilar. Ular shunday deb
baqirdilar:
15 — Nimaga bunday qilyapsizlar! Biz ham sizlar singari, insonlarmiz! Biz sizlarga
Xushxabar olib keldik, toki sizlar anavi behuda narsalardan yuz o‘giringlar, osmon bilan
yerni, dengizni va ulardagi hamma mavjudotni yaratgan barhayot Xudoga yuz buringlar.
16 O‘tmishda Xudo hamma xalqlarni o‘z holiga qo‘ydi. 17 Ammo shunga qaramay, O‘z
ezguligini ko‘rsatib, osmondan yomg‘ir yog‘dirib keldi, mavsumida hosil berdi,
rizqingizni tugal qilib, yuraklaringizni shodlikka to‘ldirdi.

18 Shu gaplarni aytib, havoriylar, biz uchun qurbonlik keltirmanglar, deb olomonni
zo‘rg‘a to‘xtatib qoldilar*.
19 Antioxiya va Ikoniyadan ba’zi bir yahudiylar kelib, xalqni o‘zlariga og‘dirib oldilar.
Ular* Pavlusni toshbo‘ron qildilar va “U o‘ldi, shekilli”, deb uni shahardan tashqariga
sudrab chiqarib tashladilar. 20 Shogirdlar Pavlusning atrofiga yig‘ilganlaridan keyin esa,
u o‘rnidan turib, shaharga qaytib kirdi. Ertasi kuni esa Barnabo bilan birga Darba
shahriga ketdi.

Pavlus va Barnabo Suriyaning Antioxiya shahriga qaytadilar

21 Ular Xushxabarni Darba shahrida va’z qilib, ko‘p shogirdlar orttirganlaridan keyin,
Listra shahriga, so‘ngra Ikoniya va Antioxiya shaharlariga qaytib keldilar. 22 Ular
shogirdlarni imonda sobit qolishga undab: “Biz Xudoning Shohligiga kirishimiz uchun
ko‘p mashaqqatlarni boshdan kechirishimiz kerak”, deb dalda berardilar. 23 Ular har bir
imonlilar jamoatiga oqsoqollar tayin qildilar. So‘ng ibodat qilib va ro‘za tutib,
oqsoqollarni o‘zlari ishongan Rabbimiz Isoning panohiga topshirdilar.
24 So‘ngra ular Pisidiyadan o‘tib, Pamfiliyaga keldilar. 25 Perga shahrida Iso haqidagi
xabarni va’z qilganlaridan keyin, Attaliyaga ketdilar. 26 So‘ng kemada Antioxiyaga qaytib
keldilar. Bu shahardagi jamoat ularni mana shu qilgan ishlari uchun Xudoning
marhamatiga topshirgan edi*. 27 Havoriylar Antioxiyaga kelganlaridan keyin, jamoatni
bir joyga yig‘dilar va Xudo ular orqali nimalar qilganini, g‘ayriyahudiylarning imonga
kelishi uchun Xudo qanday yo‘l ochib berganini aytib berdilar. 28 Havoriylar bu yerda
shogirdlar bilan birga ancha vaqt qoldilar.

15–BOB

Quddusdagi yig‘in

1 Yahudiyadan bir necha odam* Antioxiyaga kelib, imonlilarga shunday ta’lim bera
boshladilar: “Musoning qonuniga binoan sunnat qilinmasangizlar, najot topa
olmaysizlar.” 2 Pavlus bilan Barnabo ular bilan qizg‘in bahsu munozaraga kirishdilar.
Shunda: “Pavlus bilan Barnabo hamda Antioxiyadan bir necha odam Quddusga
yuborilsin”, deb qaror qilindi. Ular bu masalani havoriylar va oqsoqollar bilan
muhokama qilishlari kerak edi.
3 Imonlilar jamoati ularni yo‘lga kuzatib qo‘ydi. Ular Finikiya va Samariya orqali o‘tar
ekanlar, g‘ayriyahudiylar qanday qilib Xudoga yuz burganini aytib berdilar. Bu xabar
hamma imonlilarga katta quvonch bag‘ishladi. 4 Pavlus va Barnabo Quddusga
kelganlaridan keyin, jamoat, havoriylar, oqsoqollar ularni samimiy kutib oldilar. Pavlus
va Barnabo Xudoning ular orqali qilgan ishlarini* yig‘ilganlarga so‘zlab berdilar. 5 Ammo
farziylar mazhabiga mansub imonlilar o‘rinlaridan turib: “G‘ayriyahudiylar sunnat
qilinishlari kerak. Ularga Musoning qonuniga rioya qilishlarini buyurish kerak”, dedilar.
6 Havoriylar va oqsoqollar bu masalani muhokama qilish uchun yig‘ildilar. 7 Uzoq
davom etgan munozaradan keyin Butrus o‘rnidan turib, ularga dedi:
— Birodarlarim! O‘zlaringiz bilasizlarki, Xushxabarni g‘ayriyahudiylarga va’z
qilishim uchun Xudo meni ancha vaqt oldin orangizdan tanlab oldi. G‘ayriyahudiylar
ham Xushxabarni eshitib, imonga kelishi Uning maqsadi edi. 8 Xudo inson zotining
yuragini biladi, U bizga bergan Muqaddas Ruhni g‘ayriyahudiylarga ham berdi. Shu
orqali ularni qabul qilganini tasdiqladi. 9 Xudo imon orqali g‘ayriyahudiylarning

yuraklarini pokladi. Shunday qilib, biz bilan g‘ayriyahudiylar orasidagi farqni Xudo yo‘q qildi. 10 Shunday ekan, nima uchun shogirdlarning yelkasiga og‘ir yuk ortib, Xudoni sinayapsizlar?! Axir, bu yukni biz ham, ota–bobolarimiz ham ko‘tara olmagan edik–ku! 11 Yo‘q! Ishonamizki, biz ham ular singari, Rabbimiz Isoning inoyati tufayli najot topamiz.

12 Hamma havoriylar va oqsoqollar sukutda qoldilar. Barnabo bilan Pavlus Xudoning ular orqali g‘ayriyahudiylar orasida ko‘rsatgan alomatlari va ajoyibotlari to‘g‘risida hikoya qilib berdilar. 13 Ular gapini tugatgach, Yoqub* so‘z oldi:

— Birodarlarim! Meni eshitinglar. 14 Hozir Butrus* bizga Xudoning ilk bor g‘ayriyahudiylarga iltifot nazarini solganini va ular orasidan O‘ziga bir xalq tanlab olganini tushuntirib berdi. 15 Bu so‘zlar payg‘ambarlarning aytganlari bilan mos keladi. Yozilganiday:

> 16-17 “Egamiz shunday demoqda:
> «Bundan keyin Men qaytib kelib,
> Dovudning yiqilgan shohligini qayta tiklayman,
> Uning xarobalarini yangidan barpo qilib,
> Uni qayta quraman.
> Shunda boshqa xalqlarning hammasi Menga intiladilar,
> O‘zim da’vat qilgan o‘sha g‘ayriyahudiylar Meni izlaydilar.»
> 18 Egamiz bularni bizga azaldan ma’lum qilgan.”*

19 Yoqub gapida davom etdi:

— Shuning uchun Xudoga yuz burayotgan g‘ayriyahudiylarni qiyin ahvolga solib qo‘ymasligimiz kerak. 20 Buning o‘rniga, ularga xat yozib, shunday deb aytaylik: “Butlarga keltirilgan qurbonlikning go‘shtini tanovul qilishdan*, fahsh–zinodan* va qoni chiqarilmagan hayvonning go‘shtini yeyishdan* o‘zlaringizni tiyinglar*.” 21 Axir, Musoning qonuni azal–azaldan har bir shaharda va’z qilinmoqda, har Shabbat kuni sinagogalarda o‘qilmoqda.

G‘ayriyahudiy imonlilarga maktub

22 Shundan keyin havoriylar va oqsoqollar butun imonlilar jamoati bilan shunday qarorga keldilar: “Guruhimizdan bir necha odamni tanlab olib, ularni Pavlus va Barnabo bilan birga Antioxiyaga yuboramiz.” Ular ikkita odamni — Barsabo degan Yahudoni va Silasni tanlab oldilar. Yahudo va Silas jamoatning yo‘lboshchilari edilar. 23 Ularni shunday maktub bilan jo‘natdilar:

> “Biz, birodarlaringiz bo‘lgan havoriylar va oqsoqollar, Antioxiya, Suriya va Kilikiyada* yashaydigan g‘ayriyahudiy birodarlarimizga salom yo‘llayapmiz.
> 24 Eshitishimizcha, bizning oramizdan ba’zilar borib, o‘zlarining gaplari bilan sizlarni xavotirga solibdi, yuraklaringizni g‘ash qilibdi*. Ammo ularni biz yubormagan edik. 25 Biz vakillar tanlab, ularni aziz do‘stlarimiz Barnabo va Pavlus bilan birga sizlarning huzuringizga yuborishga bir ovozdan qaror qildik.
> 26 Barnabo bilan Pavlus Rabbimiz Iso Masih haqi–hurmati, hayotlarini xavf ostiga qo‘yganlar. 27 Shu bois biz Yahudo bilan Silasni yuboryapmiz. Ushbu yozayotganlarimizni ular sizlarga og‘zaki ham tasdiqlab beradilar. 28 Biz

Muqaddas Ruh boshchiligida sizlarga quyidagi kerakli talablardan boshqa yukni
yuklamaslikka qaror qildik: 29 sizlar butlarga keltirilgan qurbonlikning go‘shtini
va qoni chiqarilmagan hayvonning go‘shtini tanovul qilishdan hamda fahsh–
zinodan o‘zlaringizni tiyinglar*. O‘zlaringizni ana shulardan tiysangizlar, yaxshi
ish qilgan bo‘lasizlar.
Omon bo‘linglar.”

30 Shunday qilib, vakillar yo‘lga chiqib, Antioxiyaga keldilar. Ular jamoatni
yiqqanlaridan keyin maktubni jamoat a’zolariga topshirdilar. 31 Jamoat a’zolari
maktubni o‘qib, dalda so‘zlaridan xursand bo‘ldilar. 32 Yahudo bilan Silas payg‘ambar
edilar. Ular imonlilarga dalda berdilar, ularga ko‘p gaplar aytib, imonda
mustahkamladilar. 33-34 Yahudo bilan Silas ma’lum vaqt u yerda bo‘lganlaridan keyin,
imonlilar ularni yuborgan birodarlari yoniga xayrixohlik bilan jo‘natib yubordilar*.
35 Pavlus bilan Barnabo esa birmuncha vaqt Antioxiyada qolishdi. Ular u yerda
boshqalar bilan birga ta’lim berib, Rabbimiz Iso haqidagi xabarni va’z qildilar.

Pavlus bilan Barnabo ayrilishadi

36 Oradan bir necha kun o‘tgach, Pavlus Barnaboga dedi: “Qani, biz Rabbimiz Iso
haqidagi xabarni va’z qilgan shaharlarga boraylik, imonlilarni yo‘qlaylik, ularning hol–
ahvolini bilaylik.”
37 Mark degan Yuhannoni Barnabo birga olib ketmoqchi edi. 38 Ammo Pavlus buni
istamadi. Mark ularni Pamfiliyada qoldirib*, xizmatda oxirigacha birga bo‘lmagani
uchun Pavlus Barnaboning bu fikriga qattiq e’tiroz bildirdi. 39 Pavlus bilan Barnaboning
orasida shunday anglashilmovchilik bo‘ldiki, ular bir–birlarini tark etdilar. Barnabo
Markni o‘zi bilan birga olib, kemada Kiprga suzib ketdi. 40 Pavlus esa Silasni tanladi.
Imonlilar ularni Rabbimiz Isoning panohiga topshirganlaridan keyin, ular yo‘lga
chiqdilar*. 41 Suriya va Kilikiya hududlarini kezib, jamoatlarni imonda
mustahkamladilar.

16–BOB

Timo‘tiy Pavlus va Silas bilan birga ketadi

1 Pavlus bilan Silas Darba va Listra shaharlariga bordi. Listrada Isoning Timo‘tiy
ismli shogirdi yashardi. Uning onasi imonga kelgan yahudiy bo‘lib, otasi yunon edi.
2 Listra va Ikoniyadagi imonlilar Timo‘tiy to‘g‘risida yaxshi gaplar aytishardi. 3 Pavlus
Timo‘tiyni birga olib ketmoqchi bo‘lib, o‘sha yerlarda yashaydigan yahudiylar sababli
uni sunnat qildirdi*. Chunki Timo‘tiyning otasi yunon ekanini hamma bilardi. 4 Ular
shaharlar oralab o‘tganlarida, Quddusdagi havoriylar va oqsoqollar qaror qilgan
qoidalarni imonlilarga yetkazib, bularga rioya qilinglar, deb aytishardi. 5 Shunday qilib,
jamoatlar imonda mustahkam bo‘lib, kundan–kunga son jihatdan ko‘payib boraverdi.

Troas shahrida Pavlusga kelgan vahiy

6 Pavlus va uning yo‘ldoshlari Frigiya va Galatiya o‘lkasidan o‘tishdi, Muqaddas Ruh
Asiya viloyatida Iso haqidagi xabarni va’z qilishni ularga taqiqlagandi. 7 Ular Misiyadan
o‘tib, Bitiniya viloyatiga kirishga harakat qildilar. Ammo Muqaddas Ruh orqali Iso ularga
ijozat bermadi. 8 Shunday qilib, ular qaytib, Misiya orqali Troasga* ketdilar. 9 Tunda

Pavlusga vahiy keldi: Makedoniyalik bir odam: “Makedoniyaga kelib, bizga yordam ber!” deb iltijo qilardi. 10 Pavlusga kelgan bu vahiydan keyin, biz* tezda Makedoniyaga borishga hozirlik ko‘rdik. Xudo bizni u yerning xalqiga Xushxabarni va’z qilishga chaqirdi, deb ishonch hosil qilgan edik.

Filippida Lidiya imonga keladi

11 Biz kemada Troas shahridan suzib ketib, to‘g‘ri Samofrakiya oroliga yo‘l oldik, ertasi kuni Neapolis shahriga ketdik. 12 U yerdan esa Filippiga bordik. Bu Makedoniya viloyatining Birinchi tumanidagi shahar* bo‘lib, Rimga qarashli edi. Biz bir necha kun u yerda bo‘ldik. 13 Shabbat kuni biz shahardan daryo bo‘yiga chiqdik. U yerda ibodat qiladigan joy bor, deb o‘ylagan edik. O‘sha yerda ayollar yig‘ilgan ekan, biz ular bilan o‘tirib suhbatlashdik. 14 Bizni tinglab o‘tirganlar orasida Lidiya degan bir ayol ham bor edi. U Tiyatira shahridan bo‘lib, safsar matolar sotardi. U xudojo‘y* edi. Pavlusning aytganlarini jon dili bilan tinglasin deb, Egamiz Lidiyaning yuragini ochdi. 15 Lidiya bilan uning xonadon ahli suvga cho‘mdirilganlaridan keyin, u bizga shunday taklif qildi: “Agar meni Rabbimiz Isoga sodiq imonli deb hisoblasangizlar, mening uyimga kelib, o‘sha yerda turinglar.” Lidiya bizni ko‘ndirdi.

Filippi shahridagi qamoqxonada

16 Bir kuni biz ibodat qiladigan joyga ketayotganimizda, oldimizga bir cho‘ri qiz keldi. Bu qizda folchilik ruhi bo‘lib, u bashorat qilish orqali xo‘jayinlariga ko‘p pul ishlab berar ekan. 17 U Pavlus bilan bizga ergashib, shunday deb baqirardi: “Manavi odamlar Xudoyi Taoloning qullari! Ular sizlarga najot topish yo‘lini e’lon qiladilar.” 18 O‘sha cho‘ri bir necha kun davomida shunday qilib yurdi. Oxiri, Pavlus bezor bo‘lib, orqasiga o‘girildi–da, yovuz ruhga dedi: “Senga Iso Masih nomidan buyuraman: bu qizning ichidan chiqib ket!” O‘sha zahoti yovuz ruh qizning ichidan chiqib ketdi.

19 Qizning xo‘jayinlari pul ishlash imkoniyati qo‘ldan ketganini anglab yetdilar. Ular Pavlus bilan Silasni ushlab, shahar maydoniga sudrab keldilar. 20 Ularni Rim amaldorlari huzuriga olib kelib:

— Bu odamlar shahrimizni alg‘ov–dalg‘ov qilyaptilar! — dedilar. — Ular yahudiylardir, 21 biz sodiq Rim fuqarolarimiz, ular bizning qonunlarimizga zid bo‘lgan odatlarni targ‘ib qilyaptilar. Biz ularning odatlarini qabul qila olmaymiz yoki amalda qo‘llay olmaymiz.

22 Olomon Pavlus bilan Silasga qarshi hujumga qo‘shildi.

Shunda Rim amaldorlari Pavlus bilan Silasning kiyimlarini yechdirib, askarlarga: “Bularni kaltaklanglar”, deb buyurdilar. 23 Ularni rosa kaltaklashgandan keyin, zindonga tashladilar. Rim amaldorlari zindonbonga: “Ularni yaxshilab qo‘riqla”, deb buyruq berdilar. 24 Zindonbon buyruqni olib, ikkovini ichki bo‘lmaga tashladi va ularning oyoqlarini kundaga mahkamlab qo‘ydi.

25 Yarim tunda Pavlus bilan Silas ibodat qilib, Xudoga hamdu sano aytayotgan edilar. Mahbuslar esa ularni tinglab o‘tirishardi. 26 Birdan shunday qattiq zilzila yuz berdiki, qamoqxonaning poydevori larzaga keldi, shu zahoti hamma eshiklar ochilib, mahbuslarning kishanlari yechilib ketdi. 27 Zindonbon uyg‘onib, qamoqxona eshiklari ochiq ekanini ko‘rdi. U, mahbuslar ozod bo‘lib ketibdi, deb o‘ylab, qilichini qinidan sug‘urib, o‘zini o‘ldirmoqchi bo‘ldi. 28 Pavlus ovozi boricha: “Zinhor o‘zingga shikast yetkaza ko‘rma, hammamiz shu yerdamiz!” deb baqirdi. 29 Zindonbon, chiroqlar

yoqilsin, deb buyurdi va shoshilganicha ichkari kirdi–da, titrab–qaqshab, o‘zini Pavlus bilan Silasning oyoqlari ostiga tashladi. 30 Zindonbon ikkovini tashqariga olib chiqib: “Janoblar, najot topishim uchun nima qilishim kerak?” deb so‘radi.

31 — Rabbimiz Isoga ishon, shunda o‘zing va xonadon ahling najot topasizlar, — deb javob berishdi ular.

32 Pavlus bilan Silas Rabbimiz haqidagi xabarni zindonbonga va uning xonadon ahliga va’z qildilar. 33 Zindonbon tunda o‘sha zahotiyoq ikkovini bir chetga olib o‘tib, yaralarini yuvdi. So‘ng o‘zi va butun xonadon ahli suvga cho‘mdirildi. 34 Zindonbon Pavlus bilan Silasni uyiga olib kelib, ularga dasturxon yozdi. U butun xonadoni bilan birga Xudoga imon keltirganidan sevindi.

35 Tong otgach, amaldorlar mirshablarni yuborib: “Anavi odamlar o‘z yo‘liga ketaversin”, dedilar. 36 Zindonbon bu xabarni Pavlusga yetkazdi. “Amaldorlar sizlarni ketaversin, deb xabar yuboribdi, hoziroq chiqinglar, eson–omon boringlar”, dedi.
37 Pavlus esa mirshablarga shunday dedi:

— Rim fuqarosi bo‘lsak ham*, bizni hukm qilmasdan xalqning ko‘z o‘ngida kaltakladilar, zindonga tashladilar. Nima uchun endi yashirincha bizni jo‘natib yubormoqchilar?! Bunaqasi ketmaydi! O‘zlari kelib, bizni zindondan chiqarsinlar.

38 Mirshablar bu so‘zlarni amaldorlarga yetkazdilar. Ular Pavlus bilan Silasning Rim fuqarosi ekanini eshitib, qo‘rqib ketdilar. 39 Shunday qilib, amaldorlar borib, ulardan kechirim so‘rab, ularni zindondan olib chiqdilar. So‘ngra: “Shahardan ketsangizlar”, deb iltimos qildilar. 40 Pavlus bilan Silas zindondan chiqqanlaridan keyin, Lidiyaning uyiga bordilar. Ular u yerda imonlilar bilan uchrashib, ularga dalda berdilar. Shundan keyin ular Filippidan jo‘nab ketdilar.

17–BOB

Salonika shahrida

1 Pavlus bilan Silas Amfipolis va Apolloniya shaharlarini bosib o‘tib, Salonika shahriga keldilar. Bu shaharda yahudiylar sinagogasi bor edi. 2 Pavlus, o‘z odatiga ko‘ra, sinagogaga kirdi va uch hafta davomida Shabbat kunlari yahudiylar bilan munozara olib bordi. U Muqaddas bitiklar* asosida 3 Masihning azob chekishi va o‘likdan tirilishi kerakligini tushuntirib, isbotlab berdi. So‘ng: “Men sizlarga aytayotgan Iso o‘sha Masihdir”, dedi. 4 Yahudiylardan ba’zilari, shuningdek, Xudodan qo‘rqadigan* ko‘p g‘ayriyahudiylar* va yuqori martabali ayollarning ko‘pchiligi Pavlus bilan Silasga ishonib, ularga qo‘shildilar. 5 Ammo ishonmagan yahudiylar hasadga to‘ldilar va ko‘chalardagi bekorchi daydilarni to‘plab, olomonni yig‘ib, shaharda g‘alayon boshladilar. Ular: “Pavlus bilan Silasni qidirib topamiz, xalqning oldiga olib chiqamiz”, deb Yason degan odamning uyiga hujum qildilar. 6 Ammo ularni topa olishmadi. So‘ngra Yason bilan bir necha imonlilarni shahar amaldorlari huzuriga sudrab keldilar va shunday deya shovqin soldilar: “Anavi odamlar butun dunyoni ostin–ustin qilib, bizning shahrimizga ham kelibdilar. 7 Yason o‘sha odamlarga uyidan joy beribdi. Ularning hammasi, Iso degan boshqa shoh bor, deb Qaysarning* farmonlariga qarshi chiqyaptilar.” 8 Xalq va shahar amaldorlari bu gaplarni eshitib, bezovtalanib qoldilar.
9 Ular Yason va boshqa imonlilardan garovga* pul olib, ularni qo‘yib yubordilar.

Veriya shahrida

10 Qorongʻi tushgach, imonlilar Pavlus bilan Silasni Veriya shahriga joʻnatdilar. Ular
shaharga kelib, yahudiylar sinagogasiga kirdilar. 11 Bu yerdagi yahudiylar Salonikadagi
yahudiylarga qaraganda keng fikrli edilar. Ular zoʻr ishtiyoq bilan Iso haqidagi xabarni
tinglashar, Pavlusning aytganlari haqiqat ekanini koʻrish uchun Muqaddas bitiklarni har
kuni tadqiq etishardi. 12 Ularning koʻpchiligi shu boisdan imonga keldilar, shuningdek,
gʻayriyahudiy erkaklaru yuqori martabali ayollarning koʻpchiligi ham imonga keldilar.
13 Ammo Salonikadagi yahudiylar, Pavlus Veriyada Xudoning kalomini vaʼz qilibdi degan
gapni eshitganlarida, ular Veriyaga kelib, olomonni gijgijlab, qayradilar. 14 Shunda
imonlilar Pavlusni zudlik bilan dengiz boʻyiga joʻnatib yubordilar. Silas bilan Timoʻtiy
esa Veriyada qoldilar. 15 Pavlusni kuzatib ketganlar uni Afinagacha olib borib qoʻydilar*.
Ular Pavlusdan: “Silas bilan Timoʻtiy tezroq mening oldimga yetib kelsin” degan
koʻrsatmani olganlaridan keyin Veriyaga qaytib ketdilar.

Pavlus Afinada

16 Pavlus Silas bilan Timoʻtiyni Afinada kutarkan, shahar butlarga toʻlib ketganini
koʻrib, taʼbi juda xira boʻldi. 17 Pavlus sinagogada yahudiylar va Xudodan qoʻrqadigan
gʻayriyahudiylarga dalillar keltirdi. Shuningdek, shahar maydonida har kuni duch
kelgan odamlarga ham vaʼz qildi. 18 Bir necha epikurchi va stoik faylasuflar* ham Pavlus
bilan bahsga kirishishdi. Baʼzilari: “Bu mahmadona nima demoqchi?” desa, boshqalari:
“U begona xudolar toʻgʻrisida vaʼz qilyapti”, der edi. Pavlus Iso toʻgʻrisidagi Xushxabarni
va oʻliklardan tirilishni vaʼz qilayotgani uchun ular shunday deb aytardilar*. 19 Ular
Pavlusni ushlab, Aryopagus kengashiga olib bordilar va shunday dedilar: “Sen
oʻrgatayotgan yangi taʼlimot nima ekanini biz ham bilishimiz mumkinmi? 20 Bu
taʼlimoting bizga bir oz gʻalati tuyulyapti, shuning uchun bu nimani anglatishini
bilmoqchimiz.” 21 (Hamma Afinaliklar va bu yerda yashayotgan musofirlar butun
vaqtlarini oxirgi yangiliklarni aytib berish yoki eshitish bilan oʻtkazishni yaxshi
koʻrishardi.)

22 Pavlus Aryopagus kengashining oldiga chiqib, shunday dedi: “Ey Afinaliklar! Sizlar
har jihatdan gʻoyat dindor ekaningizni koʻrib turibman. 23 Men butun shaharni kezib
chiqib, sizlarning sajdagohlaringizga diqqat bilan nazar tashladim. Men oʻsha
narsalarning orasidan «Nomaʼlum xudoga» degan yozuv bitilgan qurbongohni koʻrdim.
Oʻzlaringiz bilmasdan turib sajda qilayotgan Xudoni men sizlarga anglatay.

24 Olamni va undagi hamma narsalarni yaratgan Xudo yeru osmonning Egasi boʻlib,
inson qoʻli bilan yasalgan sajdagohlarda yashamaydi. 25 Har qanday odamga jon, nafas
va hamma narsani Uning Oʻzi bergan. Shuning uchun U insonning qoʻliga qarab
qolmagan. U hech narsaga muhtoj emas. 26 Xudo bitta odamdan jamiki elatlarni yaratib,
ularni butun yer yuziga joylashtirdi. U elatlarning hayoti vaqtini va ular istiqomat
qiladigan joylarning chegaralarini belgilab berdi. 27 Xudo bularni, Meni qidirsinlar,
paypaslanib boʻlsa–da, topsinlar deb qildi. Haqiqatan ham, U har birimizdan uzoqda
emas. 28 Zotan, bir odamning aytishi boʻyicha*: «Biz Unda yashaymiz, Unda harakat
qilamiz va Unda mavjudmiz.» Sizning shoirlaringizdan biri shunday degan edi: «Biz ham
Uning zurriyotimiz.»

29 Biz Xudoning zurriyotidan ekanmiz, Xudoni inson oʻz sanʼati va mahorati bilan
shaklga solgan oltinga yoki kumushga, yo toshga oʻxshatmasligimiz kerak. 30 Xudo

oʻtmishda insoniyatning johilligiga e’tibor bermadi. Endi esa U hamma joydagi jamiki xalqlarga: «Tavba qilinglar!» deb amr bermoqda. 31 Chunki U dunyo xalqlarini Oʻzi tayinlagan Zot orqali adolat bilan hukm qiladigan kunni belgiladi. Oʻsha Zotni oʻlikdan tiriltirdi. Shu yoʻsinda jamiki insonlarga bu Zotning tayinlanganini isbot qildi.”

32 Ular Pavlusning oʻliklar tirilishi haqidagi gapini eshitganlarida, ba’zilar uni masxara qildi, ammo boshqalar: “Biz bu haqda yana sizning gaplaringizni eshitmoqchimiz”, dedilar. 33 Shunday qilib, Pavlus ularning oldidan ketdi. 34 Bir necha odam unga ergashib, imonga keldi. Imonga kelganlarning orasida Aryopagus kengashining a’zosi Dionisis, Damara ismli ayol va boshqa odamlar ham bor edi.

18–BOB

Korinf shahrida

1 Shundan keyin Pavlus Afinadan ketib, Korinfga yoʻl oldi. 2 U yerda Pavlus Akil degan bir yahudiy bilan tanishdi. Akil Pontusda tugʻilgan boʻlib, xotini Priskilla bilan Italiyadan yaqinda kelgan ekan. Chunki Qaysar* Klavdiy*, hamma yahudiylar Rimdan chiqib ketsin, deb farmon bergan edi. Pavlus ularni koʻrgani bordi. 3 Ular hamkasb boʻlib, chodir tikuvchilik bilan shugʻullanganlari uchun, Pavlus ularnikida qolib, ishladi. 4 Har Shabbat kuni u sinagogada munozara oʻtkazib, yahudiylar va gʻayriyahudiylarni* ishontirishga harakat qilardi.

5 Silas bilan Timoʻtiy Makedoniyadan kelganlaridan keyin, Pavlus butun vaqtini Iso haqidagi xabarni va’z qilishga bagʻishladi. U yahudiylarga Isoning Masih ekani toʻgʻrisida guvohlik berardi. 6 Yahudiylar esa Pavlusga qarshi chiqib, uni haqorat qildilar. Pavlus kiyimlaridan changni qoqdi–da*: “Qoningiz oʻz gardaningizda qolsin, menda ayb yoʻq, hozirdan boshlab gʻayriyahudiylar orasiga ketganim boʻlsin”, dedi ularga. 7 Shunday qilib, Pavlus sinagogani tark etib, Titas Yustus* degan bir odamning uyiga bordi. Titas Yustus ham xudojoʻy* odam boʻlib, uning uyi sinagoganing yonginasida edi.
8 Sinagoganing qavmboshisi Krispus butun xonadoni bilan Rabbimiz Isoga imon keltirdi. Pavlusdan Xushxabar eshitgan Korinfliklarning koʻpchiligi ishonib, suvga choʻmdirildilar.

9 Bir kuni tunda Rabbimiz Iso vahiyda Pavlusga zohir boʻlib, dedi: “Qoʻrqma! Gapiraver, sukut saqlama! 10 Men sen bilan birgaman. Bu shahardagi koʻpchilik Mening odamlarim boʻlgani uchun hech kim senga zarar yetkaza olmaydi.” 11 Shunday qilib, Pavlus bu shaharda bir yilu olti oy turib, xalqqa Xudoning kalomidan ta’lim berdi.

12 Gallion Axaya viloyatiga hokimlik qilgan paytlarda*, yahudiylar birgalashib Pavlusga qarshi chiqdilar va uni sudrab, mahkamaga olib keldilar.

13 Ular shunday dedilar:

— Mana bu odam qonunga qarshi yoʻllar bilan Xudoga sajda qilishga xalqni da’vat qilyapti.

14 Pavlus endi gapirmoqchi boʻlib turgan edi, Gallion yahudiylarga shunday dedi:

— Ey yahudiylar! Agar da’voingiz yomon qilmish yoki ogʻir jinoyat masalasida boʻlganda edi, shikoyatlaringizni qabul qilishga sabab topgan boʻlardim. 15 Ammo bu da’volaringiz shunchaki ayrim soʻzlar, ismlar va oʻz qonuningiz borasida ekan, bularni oʻzlaringiz koʻrib chiqaveringlar. Men bu masalalarning hakami boʻlmayman.

16 Gallion yahudiylarni mahkamadan haydab chiqardi. 17 Shunda olomon sinagoga

qavmboshisi Sostenisni tutib oldi–da, mahkamaning oldida uni kaltakladi. Ammo Gallion bularning birontasiga e’tibor bermadi.

Pavlus qisqa muddatga Antioxiyaga qaytadi

18 Pavlus Korinfda imonlilar bilan uzoq vaqt turdi. So‘ng ular bilan xayrlashib, kemada Suriyaga suzib ketdi. Akil bilan Priskilla ham u bilan birga ketdilar. Pavlus Xudoga ont ichgani uchun Kenxreyadan suzib ketishdan oldin sochini oldirdi*. 19-21 Ular Efesga yetib keldilar. Pavlus sinagogaga borib, yahudiylar bilan munozara o‘tkazdi. Odamlar Pavlusdan, biz bilan uzoqroq qoling, deb iltimos qildilar. Ammo Pavlus rozi bo‘lmadi. Ketishidan oldin esa ularga: “Xudo xohish bildirsa*, sizlarning oldingizga qaytib kelaman”, dedi. Shundan keyin Akil bilan Priskillani Efesda qoldirib, o‘zi kemada suzib ketdi.

22 Pavlus Qaysariyaga yetib kelgandan keyin, Quddusga bordi va imonlilar jamoati bilan ko‘rishdi. Shundan so‘ng Antioxiyaga ketdi. 23 U yerda ma’lum vaqt bo‘lgach, yana yo‘lga chiqdi* va Galatiya, Frigiya o‘lkalarini kezib, barcha imonlilarga dalda berdi.

Apollos

24 Shu paytda Apollos degan bir yahudiy Efesga keldi. U asli Iskandariyadan edi. U gapga chechan odam bo‘lib, Muqaddas bitiklarni* juda yaxshi bilardi. 25 U Rabbimiz Isoning yo‘lida ta’lim olgan bo‘lib, otashin ruh bilan gapirardi. Iso haqida to‘g‘ri ta’lim berardi. Suvga cho‘mdirish haqida esa faqatgina Yahyoning ta’limotini bilardi*.
26 Apollos sinagogada jasorat bilan gapira boshladi. Priskilla bilan Akil Apollosning va’zini eshitganlaridan keyin, uni uyiga taklif qilib, Xudoning yo‘lini yanada aniqroq tushuntirib berdilar. 27 Apollos Axayaga borishga qaror qildi. Efesdagi imonlilar Axayadagi shogirdlarga, Apollosni yaxshi qabul qilsangizlar, deb maktub yozdilar. Apollos Axayaga kelgach, Xudoning inoyati bilan imonga kelganlarga katta yordam berdi. 28 Apollos, Muqaddas bitiklar asosida Isoning Masih ekanini isbot etib, qat’iyat bilan yahudiylarning nohaqligini ochiqchasiga fosh qilardi.

19–BOB

Pavlus Efes shahrida

1 Apollos Korinfda ekan, Pavlus qirlar bo‘ylab yo‘l yurib, Efes shahriga keldi. Bu yerda u Isoga imon qo‘ygan bir nechta odamni uchratdi. 2 Pavlus ulardan:

— Imonga kelganlaringizda, Muqaddas Ruhni qabul qildingizlarmi? — deb so‘radi.
Ular:

— Yo‘q, biz Muqaddas Ruh borligini hatto eshitmaganmiz, — deb javob berdilar.

3 — Unday bo‘lsa, qay asosda suvga cho‘mdirildingizlar? — deb so‘radi Pavlus.

— Yahyoning ta’limotiga ko‘ra, suvga cho‘mdirildik, — deb javob berdi ular.
4 Shunda Pavlus dedi:

— Yahyo tavba qilganlarni suvga cho‘mdirar edi. U Isroil xalqiga, mendan keyin kelayotganga, ya’ni Isoga, imon keltiringlar, degan edi.

5 Ular bu gapni eshitib, Rabbimiz Isoning nomidan suvga cho‘mdirildilar. 6 Pavlus ularga qo‘lini qo‘ygan edi, Muqaddas Ruh ularni qamrab oldi. Ular boshqa* tillarda gapira boshladilar va Xudo ayon qilgan so‘zlarni aytdilar. 7 Ular taxminan o‘n ikki kishi edi.

8 Pavlus sinagogaga uch oy davomida borib, jasorat bilan xalqqa gapirib, Xudoning
Shohligi to‘g‘risida ishonchli dalillar keltirdi. 9 Ammo ba’zilari o‘jarlik qilib, umuman
ishonmadilar va hammaning oldida Isoning yo‘li to‘g‘risida yomon gaplarni aytdilar.
Pavlus yoniga imonlilarni olib, ularning huzuridan ketdi. Har kuni u Tiranus degan
odamning ma’ruza zalida munozara o‘tkazadigan bo‘ldi. 10 Bu holat ikki yil davom etdi,
Asiya aholisining hammasi — yahudiylar ham, g‘ayriyahudiylar* ham Rabbimiz Iso
haqidagi xabarni eshitishdi.
11 Xudo Pavlus orqali g‘aroyib mo‘jizalar ko‘rsatar edi. 12 Pavlusning tanasiga tekkan
ro‘molcha yoki kiyimlar xastalarga tekkizilganda, ular xastaliklaridan shifo topar,
ulardan yovuz ruhlar chiqib ketardi.
13-14 Skevas degan yahudiy bosh ruhoniysi bor edi. Uning yetti o‘g‘li o‘lka bo‘ylab
kezib, odamlardan yovuz ruhlarni quvib chiqarar edilar. Bir kuni ular Rabbimiz Isoning
nomi bilan shunday qilishga urinib, yovuz ruhga: “Pavlus e’lon qilayotgan Iso nomi bilan
buyuramiz: chiqib ket!” dedilar. 15 Yovuz ruh esa ularga: “Men Isoni bilaman, Pavlusni
ham bilaman, sizlar esa kim bo‘libsizlar?” deb so‘radi. 16 Ichida yovuz ruhi bor odam
ularga tashlandi. Ularni shu qadar qattiq urdiki, ular o‘sha uydan yalang‘och, yarador
holda zo‘rg‘a qochib qutuldilar. 17 Efesda yashagan yahudiy va g‘ayriyahudiylarning*
hammasi bu voqeani eshitib, qo‘rquvga tushdilar. Rabbimiz Isoning nomi ulug‘landi.
18 Shuningdek, imonga kelganlarning ko‘pchiligi qilmishlarini ochiqchasiga e’tirof
etdilar. 19 Afsungarlik bilan mashg‘ul bo‘lganlarning bir qanchasi kitoblarini to‘plab,
ommaning ko‘zi oldida yoqib yubordilar. Bu kitoblarning qiymati hisoblanganda, ellik
ming kumush tanga* chiqdi. 20 Shu tariqa Rabbimiz haqidagi xabar yoyilib, ta’siri tobora
ortib borar edi.
21 Shu hodisalar yuz bergandan keyin, Pavlus Makedoniya va Axayadan o‘tib,
Quddusga borishga qaror qildi. “U yerga borganimdan keyin, Rimga ham borishim
kerak”, dedi u. 22 Shunday qilib, u ikki yordamchisi — Timo‘tiy bilan Erastusni
Makedoniyaga yubordi. Pavlusning o‘zi esa ma’lum vaqt Asiya viloyatida qoldi.
23 Ammo o‘sha paytda Isoning yo‘liga qarshi qattiq g‘ala–g‘ovur bo‘ldi. 24 Demitrus
degan bir zargar odam Artemisning* ma’badi tasvirini kumushdan yasab,
hunarmandlarga ko‘p foyda keltirardi. 25 Demitrus bu sohada ishlaydigan hamma
hunarmandlarni chaqirib, shunday dedi:
— Birodarlar, bilasizlarki, biz shu hunar orqali yaxshi daromad olamiz. 26 Sizlar faqat
Efesdagina emas, balki butun Asiya viloyatida Pavlus degan odamning qilayotganlarini
ko‘rib eshityapsizlar. Pavlusning aytishi bo‘yicha, qo‘lda yasalgan xudolar aslo xudolar
emasmish. U ko‘pchilikni shunga ishontirib, yo‘ldan uryapti. 27 Shunisi xavfliki, bizning
bu hunarimiz xalqning nazaridan qolishi mumkin. Faqat shugina emas, balki boshqa
xavf ham bor: buyuk Artemisning ma’badi hech narsaga arzimas ekan degan fikrga olib
keladi. Asiya viloyati va butun dunyodagi hamma odam topinadigan bu ma’budaning
ulug‘vorligi barham topadi–ku!
28 Hunarmandlar bu gapni eshitganlarida, g‘azablanib: “Efesning Artemisi buyukdir!”
deb shovqin–suron ko‘tardilar. 29 Shaharda to‘s–to‘polon boshlandi. Xalq ikkita
Makedoniyalikni — Gayus bilan Aristarxusni tutib olib, teatr tomonga shoshildilar.
Ikkalovi Pavlusga yo‘lda hamroh bo‘lib kelayotgan edilar. 30 Pavlus olomon oldiga
chiqmoqchi bo‘lgan edi, imonlilar yo‘l qo‘ymadilar. 31 Hatto Pavlusning do‘stlari bo‘lgan
Asiya viloyatining ba’zi amaldorlari xabar berib, teatrga kirishga tavakkal qilmang, deb

iltimos qildilar. 32 Olomon sarosimaga tushgan edi. Ba’zilari bir narsa deb shovqin solsa, boshqalari boshqa narsani aytib shovqin solardi. Ularning ko‘pchiligi nima uchun yig‘ilganini bilmasdi. 33 Yahudiylar olomonga vaziyatni tushuntirmoqchi bo‘lib, Iskandar degan bir odamni oldinga chiqardilar. Iskandar qo‘li bilan olomonga, jim bo‘linglar degan ishorani qilib, himoya nutqini aytishga harakat qildi. 34 Ammo xalq uning yahudiy ekanini bilgach, hammalari jo‘r bo‘lib: “Efesliklarning Artemisi buyukdir!” deb ikki soatga yaqin baqirib turishdi.

35 Shahar kotibi olomonni tinchlantirgach, shunday dedi:

— Ey Efesliklar! Buyuk Artemis ma’badining va osmondan tushgan haykalining* saqlovchisi Efes shahri ekanini kim bilmaydi?! 36 Bularni hech kim inkor eta olmaydi. Shunday ekan, sizlar sukut saqlab, o‘ylamasdan qadam bosmasligingiz kerak. 37 Bu odamlar ma’badni talon–taroj qilmagan yoki ma’budamizni haqorat qilmagan, sizlar esa ularni bu yerga olib kelibsizlar. 38 Agar Demitrus bilan uning hunarmandlari biron odamni ayblaydigan bo‘lsa, mahkamalar ochiq, qozilar bor, bir–biriga qarshi ayblovlarni o‘sha yerda hukm qilishsin. 39 Agar boshqa bir chora ko‘rmoqchi bo‘lsangiz, u aholining qonuniy yig‘inida hal qilinadi. 40 Axir, bugun yuz bergan voqeadan keyin bizni isyonda ayblashlari mumkin. Bizda bu shovqin–suronni oqlaydigan biron sabab yo‘q.

U shu gaplarni aytib, olomonni tarqatib yubordi.

20–BOB

Pavlus Makedoniya va Yunonistonda

1 Shovqin–suron bosilgach, Pavlus imonlilarni chaqirib, ularga dalda berdi. Keyin ular bilan xayrlashib, Makedoniyaga yo‘l oldi. 2 U o‘zi bosib o‘tgan hamma shaharlarda imonlilarga ko‘p dalda berdi. So‘ng Yunonistonga* borib, 3 u yerda uch oy turdi. U Suriyaga suzib ketmoqchi bo‘lgan edi, yahudiylar unga qarshi fitna uyushtirayotganini bilib qoldi. Shuning uchun Makedoniya orqali qaytishga qaror qildi. 4 Veriyadan Pirus o‘g‘li Sopatrus, Salonikadan Aristarxus va Sekundus, Darbadan Gayus, Timo‘tiy, Asiya viloyatidan Tixikus va Trofimus Pavlusga hamroh bo‘ldilar. 5 Ular bizdan* oldin ketib, Troasda bizni kutib turgan edilar. 6 Xamirturushsiz non bayramidan* keyin biz Filippidan suzib ketdik. Besh kundan so‘ng esa Troasda ular bilan uchrashib, u yerda yetti kun turdik.

Pavlusning Troasga oxirgi safari

7 Yakshanba kuni biz Rabbimiz Isoni xotirlab, non sindirish* uchun yig‘ildik. Pavlus odamlarga yarim kechasigacha gapirdi. Ertasi kuni u jo‘nab ketishni rejalashtirgan edi. 8 Biz yig‘ilgan boloxonada ko‘p chiroqlar yonib turardi. 9 Evtixus degan bir yigit deraza raxida o‘tirgan edi. Pavlus gapini davom ettirar ekan, Evtixusni qattiq uyqu bosdi. Uyqu g‘olib kelib, Evtixus uchinchi qavatdan yerga yiqildi. Uni ko‘targanlarida, jon bergan edi. 10 Pavlus pastga tushdi, egilib, yigitni quchoqladi–da: “Xavotir olmanglar, u tirik”, dedi. 11 So‘ngra Pavlus yana boloxonaga qaytib chiqdi. Rabbimizni xotirlab, non sindirib, ovqatlandi. Ular bilan tong otguncha suhbatlashdi, keyin yo‘lga chiqdi. 12 Shu orada bu yigitni uyiga tirik olib bordilar, imonlilar bu voqeadan g‘oyat tasalli topdilar.

Troasdan Mitilinaga

13 Pavlus Assas shahriga quruqlik orqali ketishga qaror qildi. Qolganlarimiz esa

undan oldin kemada suzib ketdik. Pavlus o‘sha shaharda kemaga chiqib, bizga qo‘shiladi, deb rejalashtirgan edik. Zotan, u bizga shunday qilishini aytgan edi. 14 Pavlus biz bilan Assasda uchrashgandan keyin, uni kemaga olib, Mitilina shahriga yo‘l oldik. 15 Biz u yerdan suzib, ertasi kuni Xios oroli yaqiniga yetib bordik. Keyingi kuni Samos oroliga, uning ertasiga* Mileytus shahriga yetib bordik. 16 Pavlus Asiya viloyatida vaqtni yo‘qotmaslik uchun Efesni chetlab o‘tishga qaror qildi. Agar imkonini topsa, Hosil bayramida Quddusda bo‘lishni juda istayotgan edi.

Efes oqsoqollariga Pavlus otashin nutq so‘zlaydi

17 Pavlus Mileytusdan Efesga xabar yuborib, imonlilar jamoatining oqsoqollariga: “Mening huzurimga kelsangizlar”, deb iltimos qildi. 18 Oqsoqollar Pavlusning huzuriga kelganlarida, u oqsoqollarga dedi: “Men Asiya viloyatiga kelgan birinchi kunimdan boshlab sizlarning orangizda qanday yashaganimni o‘zlaringiz bilasizlar. 19 Men ko‘p ko‘z yosh to‘kib, kamtarlik bilan Rabbimiz Isoga xizmat qildim. Yahudiylarning fitnalari dastidan kelgan sinovlarni boshdan kechirdim. 20 O‘zlaringiz bilasizlar, men sizlarga biron foyda keltirishdan o‘zimni olib qochmadim. Balki uyma–uy yurib, ta’lim berdim, xalq oldida va’z qildim. 21 Men yahudiylarni ham, g‘ayriyahudiylarni* ham tavbaga chaqirdim. Xudoga yuz buringlar, Rabbimiz Isoga imon keltiringlar, deb ularga jiddiy nasihat qildim.

22 Endi esa Muqaddas Ruhning asiri bo‘lib, Quddusga otlanyapman. U yerda menga nima bo‘lishini bilmayman. 23 Ammo meni qamoq va quvg‘inlar kutayotgani to‘g‘risida Muqaddas Ruh har bir shaharda ogohlantirib kelmoqda. 24 Lekin hayotim o‘zim uchun hech narsaga arzimaydi, deb hisoblayman. Men faqat vazifamni oxiriga yetkazishni va Rabbimiz Iso menga yuklagan ishni tugatishni istayman. Bu ish Xudoning inoyati to‘g‘risidagi Xushxabarni e’lon qilishdir.

25 Men oralaringizda bo‘lib, Xudoning Shohligini va’z qildim. Endi shuni bilamanki, birontangiz ham mening yuzimni boshqa ko‘rmaysizlar. 26 Shuning uchun bugun sizlarga shuni e’lon qilaman: men birovning halokati uchun mas’ul emasman. 27 Axir, men Xudoning hamma maqsadini sizlarga bayon qilishdan bo‘yin tovlamadim. 28 O‘zlaringizni ehtiyot qilinglar, suruvni ham ehtiyot qilinglar. Chunki Muqaddas Ruh ularni sizning qaramog‘ingizga bergan. Xudoning jamoatiga cho‘pon bo‘linglar. Xudo jamoatni O‘z O‘g‘lining qoni evaziga sotib olgan. 29 Bilaman, men ketganimdan keyin sizlarning orangizga yirtqich bo‘rilar keladi, ular suruvga shafqat qilmaydi. 30 Hatto o‘z oralaringizdan ba’zi odamlar chiqib, imonlilarni ortidan ergashtirib, haqiqatni buzib gapiradilar. 31 Hushyor bo‘linglar! Mana shu uch yil davomida kechayu kunduz ko‘z yosh to‘kib, har biringizga qilgan pand–nasihatlarimni yodingizda tutinglar.

32 Endi men sizlarni Xudoga va Uning marhamati haqidagi xabar panohiga topshirdim. Bu xabar sizlarga kuch–qudrat ato qilib, jamiki muqaddas qilinganlar orasida meros berishga qodirdir. 33 Men hech kimning kumushi yoki oltini, yo kiyimiga ko‘z olaytirmadim. 34 O‘zlaringiz bilasizlarki, o‘zimni va sheriklarimni ta’minlash uchun qo‘llarim bilan mehnat qildim. 35 Men sizlarga bu borada namuna bo‘lib, zaiflarni qanday qo‘llab–quvvatlashimiz kerakligini ko‘rsatdim. Rabbimiz Iso aytgan shu so‘zlarni* eslaylik: «Olmoqdan ko‘ra, bermoq ko‘proq marhamat keltiradi.»”

36 Pavlus gapini tugatgandan keyin, hamma bilan birga tiz cho‘kib, ibodat qildi. 37 Hammalari yig‘lab, Pavlusni bag‘irlariga bosdilar, u bilan o‘pishib xayrlashdilar.

38 Pavlus: “Endi meni hech qachon koʻrmaysizlar”, deb aytgani uchun ular nihoyatda gʻamgin boʻlib qoldilar. Ular Pavlusni kemagacha kuzatib bordilar.

21–BOB

Pavlusning Quddusga sayohati

1 Biz* ular bilan xayrlashib, kemaga oʻtirdik va toʻgʻri Kos oroliga keldik. Ertasi kuni Rodos oroliga, keyin esa Patara shahriga bordik. 2 U yerda biz Finikiyaga ketayotgan kemani topib, oʻsha kemada suzib ketdik. 3 Kiprga yaqinlashganimizda, bu orolni chap tomonimizda qoldirib, Finikiyaga* yoʻl oldik. Tirda kemadan yuk tushirmoqchi boʻlganlari uchun biz qirgʻoqda qoldik. 4 Isoning u yerdagi shogirdlarini qidirib topdik va ular bilan bir hafta qoldik. Ular Muqaddas Ruhdan ilhomlanib, Pavlusga: “Quddusga bormang”, deb aytdilar. 5 Bu yerda vaqtimiz oxirlab qolgach, yoʻlga chiqib, safarimizni davom ettirdik. Imonlilarning hammasi, xotinlari va bola–chaqalari bilan birga, bizni shahar tashqarisigacha kuzatib chiqdi. Dengiz boʻyida tiz choʻkib, ibodat qildik. 6 Soʻng bir–birimiz bilan xayrlashdik. Biz kemaga chiqdik, ular ham uylariga qaytib ketdilar.

7 Biz Tir shahridan sayohatni davom ettirib, Ptolemay shahriga keldik. U yerdagi imonlilarni ziyorat etib, bir kun yonlarida qoldik. 8 Ertasi kuni yoʻlga chiqib, Qaysariyaga keldik. Xushxabarchi Filipning uyiga borib, unikida qoldik. Filip oziq–ovqat taqsimlash uchun saylangan yetti kishidan* biri edi. 9 Filipning turmushga chiqmagan toʻrtta qizi boʻlib, ularga bashorat qilish in’omi berilgan edi. 10 U yerda bir necha kun boʻlganimizdan keyin, Yahudiyadan Xagabus* degan paygʻambar keldi. 11 U bizning oldimizga keldi va Pavlusning kamarini olib, oʻzining oyoq–qoʻllarini bogʻladi–da, shunday dedi:

— Muqaddas Ruh demoqda: mana bu kamarning egasini yahudiylar Quddusda xuddi shu singari bogʻlab, uni gʻayriyahudiylar* qoʻliga topshiradilar.

12 Bu gapni eshitganimizdan keyin biz ham, u yerdagi odamlar ham Pavlusga, Quddusga bormang, deb yalinib–yolvordik. 13 Shunda Pavlus quyidagicha javob berdi:

— Nima qilyapsizlar? Nimaga yigʻlab, yuragimni siqyapsizlar? Men faqat oyoq–qoʻllarimning bogʻlanishiga emas, balki Rabbimiz Isoning nomi uchun Quddusga borib oʻlishga ham tayyorman.

14 Biz Pavlusni koʻndira olmaganimizdan keyin, “Rabbimiz istaganiday boʻlsin”, deb jim qoldik. 15 Bu yerda ma’lum vaqt boʻlganimizdan keyin, tayyorgarligimizni koʻrib, Quddusga yoʻl oldik. 16 Qaysariyadan Isoning ba’zi shogirdlari biz bilan birga bordilar. Ular bizni dastlabki imonlilardan boʻlgan Kiprlik Minasonning uyiga olib keldilar. Biz uning xonadonida qoldik.

17 Quddusga kelganimizda, imonlilar bizni xursandchilik bilan qabul qildilar. 18 Keyingi kuni Pavlus biz bilan birga Yoqubni* koʻrgani bordi. Barcha jamoat oqsoqollari ham u yerda yigʻilishgan edi. 19 Pavlus ular bilan salomlashgandan keyin, oʻzining xizmati orqali gʻayriyahudiylar orasida Xudo qilgan ishlarni batafsil hikoya qilib berdi. 20 Ular bu gaplarni eshitib, Xudoga hamdu sano aytdilar. Keyin Pavlusga dedilar:

— Birodarimiz Pavlus, koʻrib turibsizki, yahudiylar orasida bir necha ming odam imonga kelgan. Ularning hammasi qonunga chin dildan oʻzlarini bagʻishlaganlar. 21 Ularning eshitishicha, siz gʻayriyahudiylar orasida yashayotgan hamma yahudiylarga, Musoning qonunidan voz kechinglar, bolalaringizni sunnat qilmanglar*, yahudiylarning

urf–odatlariga rioya qilmanglar, deb ta’lim bergan ekansiz. 22 Endi nima bo‘ladi? Sizning
kelganingizni ular albatta eshitadilar. 23 Endi bizning aytganlarimizni qiling. Oramizda
nazr atagan to‘rtta odam* bor. 24 Bu odamlar bilan birga Ma’badga borib, u yerda
poklanish marosimida ishtirok eting. Ular sochlarini oldirganlarida talab qilingan
poklanish qurbonligining xarajatlarini ular uchun o‘zingiz to‘lang. Ana shunda, siz
to‘g‘ringizda aytilgan gaplar haqiqat emasligini, siz esa Musoning qonuniga rioya qilgan
holda yashayotganingizni hamma bilib oladi. 25 Imonli g‘ayriyahudiylarga kelsak, bir
qancha vaqt oldin biz ularga maktub jo‘natib*, quyidagi qarorimizni ma’lum qilgan edik:
“Butlarga keltirilgan qurbonlik go‘shtini va qoni chiqarilmagan hayvon go‘shtini tanovul
qilishdan hamda fahsh–zinodan* o‘zlaringizni tiyinglar.”

26 Ertasi kuni Pavlus o‘sha odamlarni yoniga olib, ular bilan birga o‘zini pokladi.
So‘ng Ma’badga kirib, poklanish kunlari qachon tugashini, har bir odam uchun qachon
qurbonlik keltirilishini e’lon qildi.

Pavlus Ma’badda qamoqqa olinadi

27 Yetti kunlik marosim oxirlab qolgan edi. Asiya viloyatidan kelgan yahudiylar
Pavlusni Ma’badda ko‘rib qoldilar. Ular olomonni qayrab, Pavlusni ushladilar.

28 — Ey Isroil xalqi! Yordam beringlar! — deb shovqin soldi ular. — Manavi odam
hamma joyda bizning xalqimizga, qonunimizga, Ma’badga qarshi ta’lim berib yuradi.
Buning ustiga, u g‘ayriyahudiylarni* Ma’badga olib kelib*, bu muqaddas joyni bulg‘adi!

29 Bunday deyishlariga sabab, bundan oldin ular Efeslik Trofimusni shaharda Pavlus
bilan birga ko‘rishgan bo‘lib, “Pavlus o‘sha g‘ayriyahudiyni Ma’badga olib kirdi”, deb
o‘ylagan edilar.

30 Butun shahar oyoqqa turdi, xalq birgalashib harakatga keldi. Ular Pavlusni tutib,
Ma’baddan sudrab chiqarib tashladilar. O‘sha zahoti Ma’bad eshiklari yopildi. 31 Olomon
endi Pavlusni o‘ldirmoqchi bo‘lib turgan edi, Rim lashkarining mingboshisiga: “Butun
Quddus oyoqqa turdi” degan xabar yetib keldi. 32 Mingboshi o‘sha zahoti askarlari va
yuzboshilarni olib, olomon tomonga yugurib ketdi. Olomon mingboshi bilan uning
askarlarini ko‘rgach, Pavlusni kaltaklashni bas qildilar. 33 Mingboshi Pavlusning oldiga
kelib, uni qamoqqa oldi va ikkita kishan bilan bog‘lashni buyurdi. So‘ngra u: “Bu odam
kim? U nima qildi?” deb so‘radi. 34 Olomon orasidan ba’zilari bir nimalar deb shovqin
soldi, boshqasi yana nimalardir dedi. G‘ala–g‘ovur bo‘lganidan mingboshi nima yuz
berganini aniq bila olmadi. Shuning uchun u Pavlusni qal’aga* olib borishni buyurdi.
35 Pavlus qal’aning zinapoyasiga kelganda, olomon shunchalik junbishga keldiki,
askarlar Pavlusni ko‘tarib ketishlariga to‘g‘ri keldi. 36 Olomon Pavlusning ortidan
ergashib: “Unga o‘lim!” deb shovqin solardi.

37 Askarlar Pavlusni qal’aga olib kirayotganlarida, u mingboshiga:

— Sizga bir narsani aytsam maylimi? — dedi.

— Yunoncha bilasanmi?! — deb hayron qoldi mingboshi. 38 — Bir qancha vaqt oldin
isyon boshlab, to‘rt ming qurollangan kallakesarni sahroga olib chiqqan Misrlik mabodo
sen emasmisan?

39 — Men yahudiyman, Kilikiyadagi Tarsus shahridanman*, — dedi Pavlus. — O‘sha
muhim shaharning fuqarosiman. Iltimos, xalqqa gapirishimga ijozat bering.

40 Mingboshi Pavlusga ijozat bergach, u zinapoyada turib, odamlarga qo‘li bilan: “Jim
bo‘linglar!” degan ishorani qildi. Odamlar tinchlangandan keyin, Pavlus ularga oramiy

tilida* gapira boshladi.

22–BOB

1 Pavlus olomonga shunday dedi: “Birodarlarim, otalar! Gapimga quloq solinglar,
sizlarning oldingizda o‘zimni oqlay.” 2 Odamlar uning oramiycha* gapirayotganini
eshitib, suv quyganday, jim bo‘lib qoldilar. Pavlus gapida davom etdi: 3 “Men
yahudiyman, Kilikiyadagi Tarsus shahrida* tug‘ilganman, ammo Quddusda ulg‘aydim.
Bu shaharda Gamaliyolning* shogirdi bo‘lib, ota–bobolarimizning qonuniga jiddiy
e’tibor berib ta’lim oldim. Xuddi bugungiday sizlarga o‘xshab, Xudoga o‘zimni
bag‘ishladim. 4 Isoning yo‘liga kirgan odamlarni o‘lguday quvg‘in qilardim, erkagu ayolni
bog‘lab, zindonga tashlardim. 5 Aytayotganlarim haqiqat ekanini oliy ruhoniy bilan
butun Kengash tasdiqlay oladi. Ular Damashqdagi yahudiy birodarlarimizga xat yozib
berdilar. Shunday qilib, men bu odamlarni kishanlab, Quddusga olib kelib jazolash
uchun Damashqqa jo‘nadim.

Pavlus o‘zining imonga kelishi to‘g‘risida so‘zlab beradi

6 Men yo‘limda davom etib, Damashqqa yaqinlashib qolganimda, tush payti birdan
osmondan yop–yorug‘ nur mening yon–atrofimni yoritib yubordi. 7 Men yerga yiqildim.
Shu payt: «Shoul!* Shoul! Nega sen Meni quvg‘in qilyapsan?» degan bir ovozni eshitdim.
8 «Yo Hazratim! Siz kimsiz?» deb so‘radim. Shunda U menga: «Sen quvg‘in qilayotgan
Nosiralik Isoman», deb javob berdi. 9 Mening yonimdagilar nurni ko‘rardilar–u*, ammo
men bilan gaplashayotganning ovozini eshitmasdilar. 10 Shunda men: «Yo Rabbim Iso,
nima qilay?» deb so‘radim. Rabbiy menga shunday dedi: «O‘rningdan tur, Damashqqa
bor. Nima qilishing kerakligini Xudo belgilab qo‘ygan. Hamma narsa o‘sha yerda senga
aytiladi.» 11 O‘sha nurning yarqirashidan ko‘zlarim ko‘rmay qolgan edi. Shuning uchun
hamrohlarim qo‘llarimdan ushlab, meni Damashqqa olib ketdilar.

12 O‘sha shaharda Xanoniyo degan bir taqvodor, qonunga itoat etadigan odam bor
edi. U o‘sha shahardagi hamma yahudiylar orasida katta obro‘ga ega edi. 13 Xanoniyo
oldimga kelib, yonimda turdi–da: «Birodarim Shoul! Ko‘zlaring yana ochilsin!» dedi.
O‘sha zahoti ko‘zlarim ochilib, Xanoniyoni ko‘rdim. 14 Shunda u dedi: «Ota–
bobolarimizning Xudosi seni tanladi. Toki sen Uning xohishini bilgin, Solih Zotni* ko‘rib,
Uning ovozini eshitgin. 15 Sen ko‘rib–eshitganlaring to‘g‘risida butun olamga Uning
guvohi bo‘lasan. 16 Endi nimani kutyapsan? O‘rningdan tur, suvga cho‘mgin. Rabbimizga
iltijo qilib, gunohlaringni yuvgin.»

17 Men Quddusga qaytib kelganimdan keyin, Ma’badda ibodat qilayotganimda,
menga bir vahiy keldi. 18 Men Rabbim Isoni ko‘rdim, U shunday dedi: «Tez bo‘l,
Quddusdan zudlik bilan ket! Bu yerdagi odamlar Men to‘g‘rimda bergan guvohligingni
qabul qilmaydilar.» 19 Men esa: «Yo Rabbiy! — dedim. — Men sinagogalarga borib,
Senga ishongan odamlarni qamab, kaltaklaganimni ular yaxshi biladilar. 20 Shohiding*
Stefan o‘ldirilganda, men o‘sha yerda edim, uning o‘ldirilishini ma’qullab, uni
o‘ldirayotganlarning kiyimlariga poyloqchilik qilib turgan edim.» 21 Rabbim Iso menga:
«Ketaver, — dedi. — Seni uzoqdagi g‘ayriyahudiylarning oldiga yuboraman.»”

22 Xalq Pavlusga quloq solib turdi. Ammo u shu gapini aytishi bilanoq, ular ovozi
boricha, shovqin soldi:

— Yo‘qotinglar uni! O‘ldiringlar! U yashashga loyiq emas!

23 Ular baqir–chaqir qilib, kiyimlarini otib, havoni chang–to‘zon qilib yubordilar.
24 Rim mingboshisi odamlariga:
— Pavlusni qal’aga olib kiringlar! — deb buyruq berdi. So‘ngra u yana odamlariga:
— Uni qamchilanglar! Nima uchun odamlar unga qarshi baqir–chaqir qilganini bilinglar! — dedi.
25 Pavlusni qamchilash uchun bog‘layotganlarida, Pavlus o‘sha yerda turgan yuzboshiga dedi:
— Rim fuqarosining* biron aybi topilmagan bo‘lsa ham, uni qamchilash sizlarning qonuningizda bormi?
26 Yuzboshi bu gapni eshitib, mingboshining oldiga bordi–da:
— Nima qilmoqchisiz? Axir, bu odam Rim fuqarosi ekan–ku! — dedi.
27 Mingboshi Pavlusning oldiga kelib, undan:
— Menga ayt–chi, sen Rim fuqarosimisan? — dedi.
— Ha, — deb javob berdi Pavlus.
28 Mingboshi:
— Men katta miqdorda pul to‘lab, fuqarolikni olgan edim, — dedi.
— Men esa Rim fuqarosi bo‘lib tug‘ilganman, — dedi Pavlus.
29 Pavlusni so‘roq qilmoqchi bo‘lib turganlar o‘sha zahoti undan qo‘llarini tortdilar. Mingboshi Pavlusning Rim fuqarosi ekanini eshitib, uni kishanlagani uchun qo‘rqib ketdi.

Pavlus Oliy kengash oldida

30 Yahudiylar Pavlusni nima uchun ayblayotganlarini mingboshi bilmoqchi bo‘ldi. Ertasi kuni u Pavlusni ozod qildi va “bosh ruhoniylar bilan Oliy kengash a’zolari yig‘ilsin”, deb buyurdi. Mingboshi Pavlusni ularning qoshiga olib keldi.

23–BOB

1 Pavlus Oliy kengash a’zolariga diqqat bilan qarab shunday dedi:
— Birodarlar! Shu kungacha men Xudo oldida toza vijdon bilan yashadim.
2 Oliy ruhoniy Xanoniyo Pavlusning yonida turganlarga: “Uning og‘ziga uringlar!” deb buyurdi. 3 Pavlus unga dedi:
— Xudo albatta sizni uradi, ey oqlangan devor! Siz qonunga ko‘ra, meni hukm qilgani o‘tiribsiz–ku! Nega endi qonunni buzib, meni urishga amr beryapsiz?!
4 Pavlusga yaqin turgan odamlar:
— Sen hali Xudoning oliy ruhoniysini haqorat qilyapsanmi?! — dedilar.
5 — Birodarlar, men uning oliy ruhoniy ekanini bilmabman, — dedi Pavlus. — Muqaddas bitiklarda: “O‘z xalqing yo‘lboshchisi to‘g‘risida yomon gapirmagin”*, deb aytilgan.
6 Pavlus bildiki, bu yerdagilarning ba’zilari sadduqiylar, boshqalari farziylar ekan. U Oliy kengashga qarab da’vat qildi:
— Birodarlar! Men farziyman, farziyning o‘g‘liman. O‘liklar tiriladi, deb umid qilganim uchun meni hukm qilyaptilar.
7 Pavlus shu gaplarni aytgach, farziylar va sadduqiylar bahslasha boshladilar, guruh ikkiga bo‘lindi. 8 Sadduqiylar, tirilish ham, farishta ham, ruh ham yo‘q, deb aytardilar, farziylar esa uchalasiga ham ishonardilar. 9 Shunda shovqin–suron avjiga chiqdi. Farziy

mazhabidan bo‘lgan ba’zi Tavrot tafsirchilari o‘rinlaridan turib, qattiq e’tiroz bildirdilar:

— Biz bu odamda biron ayb topmadik. Ehtimol, ruh yoki farishta unga gapirgan bo‘lishi mumkin*.

10 Bahs shu darajada kuchayib ketdiki, mingboshi: “Pavlusni tilka–pora qilishmasaydi”, deb qo‘rqib ketdi. Shundan keyin u askarlarga: “Pastga tushinglar, Pavlusni zudlik bilan olib chiqib, qal’aga* olib kiringlar!” deb buyurdi.

11 O‘sha kuni tunda Pavlusning oldiga Rabbimiz Iso kelib, shunday dedi: “Dadil bo‘l! Sen Quddusda Men uchun guvohlik bergan eding, endi Rimda ham guvohlik berishing kerak.”

Pavlusga qarshi fitna

12 Ertalab bir necha yahudiylar yig‘ilib, fitna qo‘zg‘adilar. Ular: “Pavlusni o‘ldirmagunimizcha yeb–ichmaymiz”, deya qasam ichdilar. 13 Qasam ichganlar qirq kishidan ortiq edi. 14 Shundan keyin ular bosh ruhoniylar bilan yo‘lboshchilarning oldiga borib aytdilar:

— Biz, Pavlusni o‘ldirmagunimizcha, yeb–ichmaymiz, deb qat’iy qasam ichdik. 15 Endi sizlar va Oliy kengash a’zolari mingboshiga: “Pavlusni bizning huzurimizga olib kel, u to‘g‘rida ma’lumotlarni yaxshiroq tekshirib ko‘rmoqchimiz”, deb buyuringlar. Pavlus huzuringizga yetib kelmasdan oldin uni o‘ldiramiz.

16 Pavlusning jiyani, ya’ni singlisining o‘g‘li bu fitna haqida eshitib qoldi. U qal’aga borib, Pavlusga bu to‘g‘rida aytib berdi. 17 Pavlus Rim yuzboshilaridan bittasini chaqirdi–da, shunday dedi:

— Manavi yigitni mingboshining oldiga olib bor. U mingboshiga bir narsa to‘g‘risida xabar bermoqchi.

18 Yuzboshi yigitni mingboshining oldiga olib borib, dedi:

— Mahbus Pavlus meni chaqirib, manavi yigitni sizning oldingizga olib kelishimni iltimos qildi. Uning sizga aytadigan gapi bor ekan.

19 Mingboshi yigitni qo‘lidan ushlab bir chetga olib o‘tdi–da, so‘radi:

— Menga nima to‘g‘risida xabar bermoqchisan?

20 U shunday javob berdi:

— Yahudiylar sizdan: “Ertaga Pavlusni Oliy kengashga olib keling”, deb iltimos qilishga kelishib olishdi, go‘yo Oliy kengash Pavlus to‘g‘risidagi ma’lumotlarni aniqroq qilib tekshirishar emish. 21 Ammo ularga quloq solmang! Qirqtadan ko‘proq odam yashirinib, Pavlusni kutib yotibdi. Ular, Pavlusni o‘ldirmagunimizcha, yeb–ichmaymiz, deb qasamyod qilganlar. Ular hozir tayyor bo‘lib, sizning qaroringizni kutyaptilar.

22 Mingboshi yigitga:

— Menga bergan xabaringni birontasiga ayta ko‘rma! — dedi. So‘ng unga ruxsat berdi.

Pavlus hokim Feliks huzurida

23 Mingboshi yuzboshilardan ikkitasini yoniga chaqirib, dedi:

— Oqshom soat to‘qqizda Qaysariyaga* ketish uchun ikki yuzta piyoda askarni, yetmishta otliq askarni, ikki yuzta nayzabardorlarni tayyor qilib qo‘yinglar. 24 Pavlusni ham otga mindirib olinglar. Uni hokim Feliks* oldiga eson–omon olib boringlar.

25 Mingboshi quyidagi mazmunda maktub yozdi:

26 “Klavdiyus Lisiyasdan hokim Feliks janobi oliylariga salomlar!
27 Yahudiylar bu odamni ushlab, o‘ldirmoqchi bo‘ldilar. U Rim fuqarosi
ekanini bilganimdan keyin, men askarlarim bilan birga borib, uni qutqarib
qoldim. 28 Uning qanday aybi bor ekanligini bilmoqchi bo‘lib, uni yahudiylarning
Oliy kengashiga olib keldim. 29 Men shuni bildimki, u yahudiylarning qonuniga
oid masalalarda ayblangan ekan. Ammo o‘limga yoki zindonga tashlanishga loyiq
biron ish qilmagan. 30 Bu odamga qarshi fitna uyushtirilayotganidan xabar
topganimdan keyin, o‘sha zahoti uni sizning huzuringizga yuborishga qaror
qildim. Uning ayblovchilariga ham, da’volaringizni hokim Feliksga borib
aytinglar, dedim*.”

31 Shunday qilib, askarlar mingboshining ko‘rsatmasiga muvofiq, Pavlusni olib, tun
bo‘yi yurib, Antipatris shahriga* olib keldilar. 32 Ertasi kuni otliq askarlar Pavlus bilan
birga yo‘lda davom etdi, qolganlar esa qal’aga qaytib ketdilar. 33 Otliq askarlar
Qaysariyaga yetib kelganlaridan keyin, hokimga maktubni berdilar, Pavlusni ham
hokimga ro‘para qildilar. 34 Hokim maktubni o‘qib bo‘lib, Pavlusdan: “Sen qaysi
viloyatdansan?” deb so‘radi. Pavlusning Kilikiyadan ekanini bilgach, 35 hokim:
“Ayblovchilar kelganlaridan keyin, seni eshitaman”, dedi. Shundan keyin hokim: “U
Hirodning saroyida* ushlab turilsin”, deb buyruq berdi.

24–BOB

Pavlusga qarshi dalillar

1 Besh kun o‘tgach, oliy ruhoniy Xanoniyo bir necha yo‘lboshchilar va Tertullus
degan bir huquqshunos bilan birga Qaysariyaga* keldi. Ular Pavlusga qarshi arzlarini
hokimga* bayon qilmoqchi bo‘ldilar. 2 Pavlusni chaqirib keltirganlaridan keyin,
Tertullus uni ayblay boshladi: 3 “Janobi oliylari! Sizning dono rahbarligingiz ostida biz
anchadan buyon tinch–xotirjam yashayapmiz, uzoqni ko‘ra bilishingiz sharofati bilan
xalqimiz uchun islohotlar amalga oshirildi. Biz buni hamma joyda va har doim e’tirof
etamiz, sizdan chuqur minnatdormiz. 4 Men sizning vaqtingizni ko‘p olmoqchi emasman,
marhamatingizni darig‘ tutmay, bizning qisqa axborotimizga quloq solishingizni iltimos
qilaman. 5 Biz, aslida, bu odamni vabo singari xavfli deb bilamiz. U dunyodagi hamma
yahudiylar orasida isyon boshladi. U nasroniylar mazhabining* rahnamosidir. 6-7 U hatto
Ma’badni bulg‘ashga harakat qildi. Shuning uchun biz uni hibsga oldik*. 8 Bu odamni
o‘zingiz so‘roq qilsangiz, biz uni nimada ayblayotganimizni uning o‘zidan bilib olasiz.”
9 Yahudiylar bu ayblovlarga qo‘shilib, bularning hammasi haqiqat, deb aytdilar.

Pavlusning Feliks huzuridagi himoya nutqi

10 Hokim, gapir, deb Pavlusga ishora qilgandan keyin, u shunday javob berdi:
“Bilaman, siz ancha yildan beri bu xalq ustidan hukmron bo‘lib kelasiz. Shuning uchun
o‘zimni sizning huzuringizda himoya qilayotganimdan xursandman. 11 O‘zingiz bilib
olishingiz mumkin: Xudoga sajda qilgani Quddusga borganimga o‘n ikki kundan oshgani
yo‘q. 12 Men Ma’badda biron odam bilan tortishib qolganimni yoki sinagogalarda, yo
bo‘lmasa shaharda olomon orasiga g‘ulg‘ula solganimni ular ko‘rganlari yo‘q.
13 Qolaversa, hozir menga qarshi aytayotgan ayblovlarini ular isbotlab bera olmaydilar.
14 Ammo shuni tan olishim kerakki, ular Isoning yo‘lini soxta e’tiqod deb aytishadi. Men

esa Isoning yo‘li orqali ota–bobolarimizning Xudosiga sajda qilaman. Tavrotga mos kelgan va Payg‘ambarlar bitiklarida* yozilgan har bir so‘zga men ishonaman. 15 Men mana shu odamlar singari, Xudoga umid bog‘laganman. Xudo solihlarni va fosiqlarni tiriltirishiga men ham ularday ishonaman. 16 Ayni shu sababdan Xudo va xalq oldida men doim vijdonimni sof saqlashga tirishaman.

17 Mana, Quddusda bo‘lmaganimga bir necha yil bo‘ldi, endi xalqimga xayr–sadaqa berish va nazr qilish uchun Quddusga borgandim. 18 Men shularni bajarayotganimda, ular meni Ma’badda ko‘rib qoldilar. Men poklanish marosimini ado etayotgan edim, yonimda olomon yo‘q edi, shovqin–suron ham ko‘tarmagan edim. 19 Asiya viloyatidan bo‘lgan bir necha yahudiylar o‘sha yerda edilar. Agar ularning menga qarshi biron da’volari bo‘lsa, ular o‘zlari sizning huzuringizga kelib, o‘z ayblovlarini bildirishlari kerak. 20 Yoki bu yerdagilar aytishsin, men Oliy kengash a’zolari oldida turganimda menda qanday jinoyat topdilar ekan? 21 Men ularning oldida turganimda, baland ovozda: «Men o‘liklar tiriladi, deb aytganim uchun bugun oldingizda hukm qilinyapman», deb aytgan edim. Bundan boshqa nima aybim bor?”

22 Isoning yo‘li to‘g‘risida batafsil xabardor bo‘lgan Feliks yig‘ilishni to‘xtatib: “Mingboshi Lisiyas kelgandan keyin, sening ishing to‘g‘risida qaror qabul qilaman”, dedi. 23 Feliks yuzboshiga: “Uni qamab qo‘y, ammo unga ozgina erkinlik ber, uning ehtiyojlari uchun xizmat qilmoqchi bo‘lgan do‘stlariga ijozat ber”, deb buyruq berdi.

Pavlus Feliks va Drusilla huzurida

24 Bir necha kundan keyin Feliks xotini Drusilla bilan keldi. Drusilla yahudiy edi*. Feliks Pavlusni chaqirtirib keldi va Iso Masihga ishonish to‘g‘risidagi gaplarini tingladi. 25 Pavlus solihlik, nafsni tiyish, qiyomat kunining kelishi to‘g‘risida gapirar ekan, Feliks qo‘rqib, dedi: “Sen endi boraver. Imkon topilgan zahoti, seni chaqiraman.” 26 Feliks: “Pavlus menga pora beradi”, deb umid qilardi, shuning uchun Pavlusni tez–tez chaqirib, u bilan suhbatlashardi.

27 Oradan ikki yil o‘tgach, Feliksning o‘rniga Po‘rkiyus Festus hokim bo‘ldi. Feliks yahudiylarning ko‘nglini olmoqchi bo‘lib, Pavlusni qamoqda qoldirdi.

25–BOB

Pavlus hokim Festus huzurida

1 Festus Yahudiya viloyatiga hokim bo‘lib kelgandan keyin uch kun o‘tgach, Qaysariyadan* Quddusga bordi. 2 U yerda bosh ruhoniylar va yahudiy yo‘lboshchilari Pavlusga qarshi dalillarni hokim Festusga bayon qildilar. Ular Festusdan: 3 “Pavlusni Quddusga chaqirtirsangiz”, deb iltimos qildilar. Aslida ular yo‘lda Pavlusga suiqasd qilishni rejalashtirgan edilar. 4 Festus ularga shunday javob berdi:

— Pavlus Qaysariyada qamoqda, men hademay o‘sha yerga qaytib boraman. 5 Yo‘lboshchilaringiz men bilan birga Qaysariyaga borsin. Agar Pavlus biron yomon ish qilgan bo‘lsa, mayli, uni ayblasinlar.

6 Festus sakkiz–o‘n kuncha ular bilan birga bo‘lib, keyin Qaysariyaga qaytdi. Ertasi kuni u hukm kursisiga o‘tirib: “Pavlus olib kelinsin!” deb buyurdi. 7 Pavlus kelgach, Quddusdan kelgan yahudiylar uni o‘rab oldilar va unga qarshi jiddiy ayblovlarni qo‘ya boshladilar. O‘zlari esa bu ayblarni isbotlay olmasdilar. 8 Ammo Pavlus o‘zini himoya qilib, shunday dedi:

— Men yahudiylar qonuniga yoki Ma’badga, yo Qaysarga* qarshi biron notoʻgʻri ish qilmadim.

9 Festus esa yahudiylarning koʻnglini olmoqchi boʻlib, Pavlusdan soʻradi:

— Quddusga borib, oʻsha yerda mening oldimda senga qoʻyilgan shu ayblar boʻyicha hukm qilinishni istaysanmi?

10 — Men Qaysarning mahkamasida turibman, men shu yerda hukm qilinishim kerak, — dedi Pavlus. — Men yahudiylarga qarshi biron notoʻgʻri ish qilmadim, buni oʻzingiz ham yaxshi bilasiz. 11 Agar men qonunga xilof biron ish qilib, oʻlimga loyiq boʻlsam, oʻlimdan qutulish uchun harakat qilmayman. Agar bu odamlarning menga qarshi ayblovlari yolgʻon boʻlsa, hech kim meni ularning qoʻliga topshirishga haqli emas. U holda men Qaysarning hukmini talab qilaman*.

12 Festus oʻz maslahatchilari bilan kengashib olgach, Pavlusga:

— Sen Qaysarning hukmini talab qilding, endi Qaysarning oldiga borasan, — dedi.

Pavlus shoh Agrippa va Vernika huzurida

13 Bir necha kun oʻtgandan keyin, shoh Agrippa bilan Vernika* Qaysariyaga Festus huzuriga tashrif buyurdilar. 14 Ular bir necha kun shu yerda turdilar. Pavlusning ahvolini Festus shohga tushuntirdi:

— Bu yerda bir odam bor, Feliks uni qamoqda qoldirgan edi. 15 Quddusda boʻlganimda bosh ruhoniylar bilan yahudiy yoʻlboshchilari oʻsha odam toʻgʻrisida menga axborot berdilar va “Uni oʻlimga mahkum qiling”, deb mendan iltimos qildilar. 16 Men ularga shunday deb aytdim: “Rim yoʻl–yoʻriqlari boʻyicha hech kim soʻroq qilinmasdan jazolanish uchun ayblovchining qoʻliga topshirilmaydi. Ayblanuvchiga ayblovchilar bilan yuzma–yuz uchrashib, oʻzini himoya qilish imkoniyati beriladi.” 17 Bosh ruhoniylar va yoʻlboshchilar bu yerga kelganlarida, men vaqtni boy bermay, ertasi kuniyoq hukm kursisiga oʻtirdim–da, Pavlusni olib kelinglar, deb buyurdim. 18 Lekin Pavlusning raqiblari uni men kutgan jinoyatlarda ayblamadilar. 19 Buning oʻrniga ular oʻzlarining dini toʻgʻrisida, oʻlib ketgan qandaydir Iso toʻgʻrisida Pavlus bilan bahs qildilar. Pavlus, Iso tirikdir, deb tasdiqlayverdi. 20 Bu masalalarni qanday hal qilsam ekan, deb boshim qotib qoldi. Men Pavlusdan: “Quddusga borib, oʻsha yerda oʻzingga qoʻyilgan ayblar boʻyicha hukm qilinishni istaysanmi?” deb soʻradim. 21 Ammo Pavlus, men imperator janobi oliylari qaror chiqarmaguncha qamoqda qolaman, dedi. Shuning uchun men: “Pavlusni Qaysarning huzuriga joʻnatgunimcha, u qamoqda saqlansin”, deb buyruq berdim.

22 Agrippa Festusga:

— Oʻsha odamning gaplarini men oʻzim eshitishni xohlayman, — dedi.

— Ertaga uning gaplarini eshitasiz, — deb javob berdi Festus.

23 Ertasi kuni Agrippa bilan Vernika dabdaba bilan kelib, mingboshilar, shaharning yuqori martabali odamlari bilan birga yigʻin zaliga kirdilar. Festus: “Pavlus olib kelinsin!” deb buyruq berdi.

24 — Shoh Agrippa janoblari! Bu yerda hozir boʻlganlar! — dedi Festus. — Manavi odamni koʻrib turibsizlar. Shu yerdagi va Quddusdagi hamma yahudiylar bu odamga qarshidir. Ular menga shikoyat qilib: “Bu odam yashashga loyiq emas!” deb shovqin solmoqdalar. 25 Ammo mening nazarimda bu odam oʻlimga loyiq biron ish qilmagan. U imperator janobi oliylarining hukmini talab qilgani uchun, uni Rimga yuborishga qaror

qildim. 26 Ammo u to‘g‘rida imperator janobi oliylariga yozishim uchun aniq bir narsa yo‘q. Shuning uchun men bu odamni sizlarning huzuringizga, xususan, shohimiz Agrippa janobi oliylari, sizning huzuringizga olib keldim. Bu masalani ko‘rib chiqqanimizdan keyingina, men biron narsa yozishim mumkin. 27 Mahbusga qarshi ayblovlarni aniq ko‘rsatmay turib, uni imperatorga yuborish men tomondan aqlsizlik bo‘lar edi.

26–BOB

Pavlus shoh Agrippa oldida o‘zini oqlaydi

1 Agrippa* Pavlusga:

— O‘zingni himoya qilib gapirishing mumkin, — dedi. Shundan keyin Pavlus qo‘lini cho‘zib, o‘zini himoya qilib gapira boshladi: 2 “Shoh Agrippa janobi oliylari! Bugun mana bu yahudiylar menga qo‘yayotgan ayblardan o‘zimni sizning huzuringizda himoya qilayotganim uchun baxtiyorman. 3 Axir, yahudiylarning odatlari va bahslarini siz juda yaxshi bilasiz. Sizdan iltimos, marhamat qilib mening gapimni eshitsangiz.

4 Yoshligimdan bosib o‘tgan hayot yo‘limni — Quddusda, o‘z xalqim orasida kechirgan hayotimni hamma yahudiylar biladilar. 5 Agar ular guvohlik berishni istasalar, dinimizning eng ashaddiy mazhabi farziylarga mansub bo‘lganimni ular azaldan biladilar. 6 Endi esa, Xudoning ota–bobolarimizga bergan va’dasiga umid qilganim* uchun hukm qilinyapman. 7 Vaholanki, xalqimizning o‘n ikki qabilasi* kechayu kunduz Xudoga chin dildan sajda qilib, shu va’da bajo bo‘lishiga umid qilyaptilar. Janobi oliylari, men ham aynan shunday umid qilganim uchun yahudiylar meni ayblayaptilar. 8 Ey shu yerda turganlar! Nima uchun Xudo o‘liklarni tiriltirishiga ishonib bo‘lmaydi, deb o‘ylaysizlar?

9 Men o‘zimcha, Nosiralik Isoning nomiga qarshi har narsani qilishim kerak, deb o‘ylagandim. 10 Men buni Quddusda qildim ham. Bosh ruhoniylardan vakolat olib, Xudoning azizlaridan ko‘pchiligini qamoqqa tashladim. Ular o‘limga hukm qilinganlarida, men buni ma’qullab turardim. 11 Men tez–tez bir sinagogadan ikkinchisiga borib, ularni jazolardim, imonlaridan qaytarishga harakat qilardim. Men ularga nisbatan shunchalik shafqatsiz edimki, hatto begona shaharlarda ham ularni quvg‘in qilgani borardim.

12 Bir kuni shu maqsadda bosh ruhoniylardan vakolat olib, Damashqqa bir topshiriq bilan ketayotgan edim. 13 Janobi oliylari! Men kuppa–kunduzi yo‘lda ketayotganimda, birdan osmonda quyoshdan ham yorug‘ nurni ko‘rdim. Nur sheriklarim bilan mening yon–atrofimni yoritib yubordi. 14 Hammamiz yerga yiqildik. Shunda oramiy tilida* menga gapirayotgan bir ovozni eshitdim:

— Shoul!* Shoul! Nimaga Meni quvg‘in qilyapsan? Ho‘kiz o‘z egasining tayog‘ini tepib, o‘ziga zarar keltirganday, sen ham Menga qarshi chiqib, o‘zingga zarar keltiryapsan.

15 — Hazratim! Siz kimsiz? — deb so‘radim men.

— Sen quvg‘in qilayotgan Isoman, — deb javob berdi Rabbiy. 16 — Endi o‘rningdan tur, Shoul. Seni O‘z xizmatkorim qilib tayinlash maqsadida senga zohir bo‘ldim. Sen Meni ko‘rganingni boshqalarga aytasan, senga ko‘rsatadiganlarim to‘g‘risida guvohlik berasan. 17 Men seni o‘z xalqing qo‘lidan qutqaraman. Seni g‘ayriyahudiylar orasiga yuborib, ularning qo‘lidan ham xalos etaman. 18 Sen g‘ayriyahudiylarning ko‘zlarini

ochasan, ularni zulmatdan yorug‘likka, shaytonning hukmronligidan Xudoning hukmronligiga qaytarasan. Menga imon keltirish orqali ularning gunohlari kechirilib, ular Xudoning tanlangan xalqi orasidan joy oladilar.

19 Shunday qilib, shoh Agrippa janoblari, samodan menga kelgan vahiyga itoatsizlik
qilmadim. 20 Avvalo, Damashqda va Quddusda, keyin butun Yahudiyada, shuningdek,
g‘ayriyahudiylar orasida: «Gunohlaringiz uchun tavba qilinglar, Xudoga yuz buringlar,
tavba qilganingizni ko‘rsatadigan ishlar qilinglar», deb va’z qildim. 21 Shu sababdan
yahudiylar meni Ma’badda tutib olib, o‘ldirmoqchi bo‘ldilar. 22 Ammo shu kungacha
Xudo menga madad berdi. Men hammaga — kattayu kichikka birday guvohlik berib
keldim. Men ularga faqat payg‘ambarlarning va Musoning aytganlarini* gapirgan edim.
23 Masih O‘z xalqiga va g‘ayriyahudiylarga nur olib kelish uchun azob chekishi va
birinchi bo‘lib o‘likdan tirilishi kerak, deb aytdim, xolos.”

24 Pavlus shu tariqa o‘zini himoya qilar ekan, Festus unga baqirib dedi:

— Sen telba bo‘lib qolibsan, Pavlus! Ko‘p bilganing seni aqldan ozdiryapti!

25 Pavlus esa shunday dedi:

— Men aqldan ozganim yo‘q, Festus janobi oliylari! Men jiddiy haqiqatni
gapiryapman. 26 Shoh bu narsalar to‘g‘risida bilgani uchun, men unga bemalol
gapirmoqdaman. Bu narsalarning har biri uning e’tiboridan chetda qolmaganiga imonim
komil. Chunki bular yashirin qilingan emas. 27 Shoh Agrippa janoblari! Siz
payg‘ambarlarning bashoratlariga ishonasizmi? Bilaman, ishonasiz.

28 Agrippa Pavlusga:

— Sen darrov meni masihiy bo‘lishga ko‘ndirmoqchisan–a, — dedi. 29 Pavlus
shunday javob berdi:

— Darrov bo‘ladimi yoki uzoq vaqtdan keyin bo‘ladimi, nafaqat siz, balki mening
gaplarimni eshitayotganlarning hammasi men singari bo‘lsin deb, Xudoga ibodat
qilaman. Ammo mana bu kishanlarni sizlarga ravo ko‘rmayman.

30 Shundan keyin shoh Agrippa, hokim Festus, Vernika va boshqalar o‘rinlaridan
turdilar. 31 Ular ketayotib, bir–birlariga: “Bu odam o‘limga yoki zindonga tashlanishga
loyiq biron ish qilmagan”, deb aytdilar. 32 Agrippa Festusga:

— Agar bu odam Qaysarning* hukmini talab qilmaganda edi, uni ozod qilish mumkin
edi, — dedi*.

27–BOB

Pavlusning dengiz orqali Rimga safari

1 Bizni* dengiz orqali Italiyaga* jo‘natishga qaror qildilar. Shundan keyin ular
Pavlusni va boshqa ba’zi mahbuslarni Imperiya qo‘shinidagi Yuliyus degan Rim
yuzboshisiga topshirdilar. 2 Hammamiz Adramittion shahridan kelgan kemaga o‘tirdik.
Kema Asiya viloyatining bandargohlariga* endi jo‘namoqchi bo‘lib turgan ekan. Biz
yo‘lga tushdik. Salonikadan kelgan Makedoniyalik Aristarxus degan odam bizga hamroh
bo‘ldi. 3 Ertasi kuni biz Sidon shahriga yetib keldik. Yuliyus Pavlusga yaxshi
munosabatda bo‘ldi, shuning uchun do‘stlari oldiga borishga va kerakli narsalarni
olishga ijozat berdi. 4 Biz u yerdan jo‘nab ketdik. Shamol bizga qarshi tomondan
esayotgani uchun Kipr orolini panalab suzib o‘tdik. 5 So‘ng Kilikiya va Pamfiliya
viloyatlarining janub tomonidan suzib, Likiya viloyatidagi Mura shahriga keldik.

6 Yuzboshi u yerda Iskandariyadan Italiyaga suzib ketadigan kemani topdi va bizni unga
o‘tqazdi. 7 Biz bir necha kun sekin suzib, nihoyat qiyinchiliklar bilan Knidus shahriga
yetib keldik. Shamol bizga qarshi esayotgani uchun Salmona yarim orolining yonidan
o‘tib, Krit orolini panalab suza boshladik. 8 Orolning qirg‘og‘i bo‘ylab mashaqqatlar bilan
Go‘zal bandargohlar degan joyga yetib keldik. Bu joy Laseya shahri yaqinida joylashgan.
9 Biz ancha vaqt o‘sha yerda qoldik. Hatto Poklanish kuni* ham o‘tdi, suzish xavfli
bo‘lib qoldi. Pavlus kemachilarga maslahat berdi:
10 — Do‘stlar! Ko‘rib turibman, bu yerdan suzib ketadigan bo‘lsak, nafaqat yukimiz
va kemamiz, balki jonimiz ham xavf ostida qoladi, og‘ir halokatga uchraymiz.
11 Lekin yuzboshi Pavlusning maslahatiga quloq solmay, kema darg‘asi va kema
egasining gapiga kirdi. 12 Qishni o‘tkazish uchun bandargoh yaxshi sharoitga ega emas
edi. Shuning uchun deyarli hamma u yerdan dengizga chiqishga, qanday qilib bo‘lsa ham
Finiksga yetib olib, qishni o‘sha yerda o‘tkazishga rozi edi. Finiks Krit orolidagi
bandargoh bo‘lib, qattiq qish shamollaridan panada edi*.

Dengizdagi bo‘ron

13 Janubdan mayin shabada esa boshlaganda, ular: “Niyatimiz amalga oshadigan
bo‘ldi”, deb o‘yladilar. Shuning uchun ular langarni ko‘tarib, Krit oroli bo‘ylab, qirg‘oqqa
yaqin suza boshladilar. 14 Ammo ko‘p o‘tmay orol tomondan nihoyatda kuchli bo‘ron
ko‘tarildi. Bu “Shimoli–sharq” bo‘roni deb aytilardi. 15 Bo‘ron kemaga shunday urildiki,
natijada kema shamolga qarshi suzolmay qoldi. Shundan keyin o‘zimizni to‘lqinlarga
topshirib, shamol yo‘nalishi bo‘ylab suzib ketdik. 16 Biz Kavda* degan orolchani panalab
o‘tdik. Kemaning qayiqchasini zo‘rg‘a ushlab qoldik. 17 Dengizchilar qayiqni yuqoriga
ko‘tarib oldilar. Keyin esa kema parchalanib ketmasin deb, uni ostidan arqonlar bilan
mahkam bog‘ladilar. Ular: “Surtis* atroflarida qumga o‘tirib qolmasak edi”, deb qo‘rqib,
tezlikni kamaytiradigan langarni* tushirdilar va kemani shamol yo‘nalishiga qo‘yib
berdilar. 18 Quturgan bo‘ron davom etardi. Ertasi kuni ular kemadan yuklarni uloqtira
boshladilar. 19 Uchinchi kuni esa o‘z qo‘llari bilan kemaning asbob–uskunalarini
dengizga otdilar. 20 Bir necha kun biz na quyoshni, na yulduzlarni ko‘rdik. Bo‘ron
quturgani sari, qutulishimizga bo‘lgan umid so‘nib borardi.
21 Hech kim uzoq vaqt biron narsa tanovul qilmadi. Shunda Pavlus ularning o‘rtasiga
chiqib, shunday dedi:
— Do‘stlar! Agar mening gaplarimga quloq solib, Kiprdan ketmaganlaringizda edi,
biz mana shu zararga va og‘ir halokatlarga duchor bo‘lmasdik. 22 Endi sizlarga
maslahatim shu: dadil bo‘linglar! Oramizdan hech kim nobud bo‘lmaydi, faqat kemadan
mahrum bo‘lamiz, xolos. 23 Men mansub bo‘lgan va men sajda qiladigan Xudoyim o‘tgan
kuni oldimga O‘z farishtasini yubordi. 24 Farishta menga shunday dedi: “Qo‘rqma,
Pavlus, sen Qaysar* huzurida bo‘lishing kerak. Sen bilan birga kemada suzib
ketayotganlarga Xudo hayot bag‘ishladi.” 25 Shuning uchun, do‘stlar, dadil bo‘linglar,
chunki Xudoga ishonaman: hammasi menga aytilganiday bo‘ladi. 26 Biz biron orolga
albatta tushamiz.
27 O‘n to‘rtinchi kuni kechasi biz O‘rta yer dengizida* shamol yo‘nalishi bo‘ylab
suzayotgan edik. Taxminan tun yarmida dengizchilar quruqlikka yaqinlashib
qolganimizni payqab qoldilar. 28 Ular chuqurlikni o‘lchagan edilar, 20 quloch chiqdi. Bir
oz nariroqni o‘lchagan edilar, 15 quloch* chiqdi. 29 Ular: “Kema qoyalarga borib uriladi”,

deb qo‘rqib ketganlari uchun kemaning ortidan to‘rtta langarni tushirdilar va tezroq tong otsin, deb Xudoga astoydil iltijo qildilar. 30 Shu orada dengizchilarning ba’zilari kemadan qochib chiqishga urindilar. Ular qayiqni suvga tushirib, o‘zlarini xuddi kemaning old tomonidan langar tushirmoqchi bo‘lganday ko‘rsatdilar. 31 Pavlus yuzboshi bilan askarlarga shunday dedi:

— Bu odamlar kemada qolmas ekanlar, bilib qo‘yinglar, sizlar ham o‘zlaringizni qutqara olmaysizlar.

32 Askarlar qayiq bog‘langan arqonni kesdilar va qayiqni suvga tushirib yubordilar.
33 Tong otishi bilan, Pavlus ulardan tamaddi qilib olishlarini iltimos qildi:

— Bugun o‘n to‘rt kundirki, sizlar xavotirlikda bo‘lib, hech narsa yemadingizlar.
34 Yolvoraman: bir oz tamaddi qilib olinglar, bu tirik qolishingiz uchun kerak. Boshingizdan biron tola soch ham tushmaydi.

35 Pavlus shu so‘zlarni aytib bo‘lgach, nonni oldi va hammaning ko‘z o‘ngida Xudoga shukrona aytdi. So‘ngra nonni sindirib, yeya boshladi. 36 Boshqalar ham dadillanib, ovqatlana boshladilar. 37 Kemada jami 276 kishi bor edi. 38 Ular to‘yib olgach, bug‘doyning hammasini dengizga tashlab, kemani yengillashtirdilar.

Kema halokatga uchraydi

39 Tong otganda, dengizchilar qirg‘oqni taniy olmadilar. Ammo qirg‘oqdagi qumli qo‘ltiqni payqadilar. Agar imkoni bo‘lsa, kemani o‘sha yerda qirg‘oqqa to‘xtatamiz, deb qaror qildilar. 40 So‘ng langarlarni kesib, dengizga tushirib yubordilar. Ayni paytda eshkaklarni mahkam bog‘lab turgan arqonlarni yechdilar. Shundan keyin oldingi yelkanni shamolga qaratib, qirg‘oqqa suzib ketdilar. 41 Lekin kema sayoz joyga urilib, qumga o‘tirib qoldi. Oqibatda kemaning old qismi qumga tiqilib, qimirlamay qoldi. Kemaning orqa qismi esa to‘lqinlar shiddatidan parcha–parcha bo‘lib ketdi.

42 Shunda askarlar: “Mahbuslar suzib, qutulib ketmasin”, deya ularni o‘ldirmoqchi bo‘ldilar. 43 Ammo yuzboshi Pavlusni qutqarmoqchi bo‘lib, askarlarni bu niyatlaridan qaytardi. Ularga shunday buyruq berdi: “Suzishni biladiganlar birinchi bo‘lib kemadan sakrasin va qirg‘oqqa suzib borsin, 44 qolganlar esa taxtalarni yoki kemaning biron siniq bo‘lagini olib, ularning ortidan ergashsinlar.” Shu yo‘sin hammalari eson–omon qirg‘oqqa yetib oldilar.

28–BOB

Malta orolida

1 Biz* qirg‘oqqa eson–omon yetib borganimizdan keyin, bildikki, bu orolning nomi Malta ekan. 2 Yerli aholi bizga g‘oyat do‘stona munosabatda bo‘ldi. Yomg‘ir yog‘ayotgani va sovuq bo‘lgani uchun ular olov yoqib, hammamizni olov atrofiga taklif qildilar.
3 Pavlus shox–shabba yig‘ib kelib, olov ustiga tashlayotganda, bir zaharli ilon issiqdan qochib, uning qo‘liga osilib qoldi. 4 Yerli aholi Pavlusning qo‘liga osilib qolgan ilonni ko‘rib bir–birlariga: “Bu odam qotil bo‘lsa kerak, u dengizdan qutulsa ham, Qasos xudosi unga yashashga imkon bermadi”, dedilar. 5 Ammo Pavlus ilonni olov ichiga silkitib otdi, o‘zi esa hech qanday zarar ko‘rmadi. 6 Aholi, hozir bu odam shishib ketadi yoki birdan yiqilib o‘ladi, deb kutardi. Ular uzoq kutdilar, lekin g‘ayritabiiy ravishda unga hech narsa bo‘lmaganini ko‘rdilar. Endi odamlar fikrlarini o‘zgartirib: “U xudo ekan”, deb ayta boshladilar.

7 O‘sha joyning yaqinida bir dala bor edi, bu dala orol boshlig‘i Publiyusga tegishli
ekan. Publiyus bizni uyiga olib ketib, uch kun mehmon qildi. 8 Uning otasi ichburug‘dan
isitmalab, to‘shakda yotardi. Pavlus uning xonasiga borib, ibodat qildi, unga qo‘lini
qo‘yib, shifo berdi. 9 Shu voqea yuz bergandan keyin, oroldagi hamma xasta odamlar
Pavlusning oldiga kelib, shifo topdilar. 10 Ular bizga ko‘p izzat–hurmat ko‘rsatdilar.
Jo‘nab ketayotganimizda esa safarimiz uchun zarur oziq–ovqatlarni kemaga
joylashtirdilar.

Maltadan Rimga

11 Uch oydan keyin Iskandariyadan kelgan kema bilan dengizga chiqdik. Kema
“Egizak xudolar”* deb atalardi. U orolda qishlab qolgan edi. 12 Biz Surakuz shahriga
borib, u yerda uch kun turdik. 13 U yerdan suzib ketib, Regiumga keldik. Ertasi kuni
janubdan shamol esa boshladi. Ikkinchi kun Puteol shahriga yetib keldik. 14 U yerda bir
necha imonlilar bilan uchrashdik. Ular: “Biz bilan qolinglar”, deb iltimos qildilar.

Bir haftadan keyin biz Rimga ketdik. 15 Rimdagi imonlilar biz to‘g‘rimizda eshitib,
bizni kutib olgani yo‘lga chiqishdi. Ba’zilari bilan Appiyus bozorida ko‘rishdik, boshqa
birlari bilan esa Uch mehmonxona* degan joyda uchrashdik. Pavlus ularni ko‘rib,
Xudoga shukur aytdi va yanada dadillashdi. 16 Biz Rimga kelganimizdan keyin, Pavlusga*
bir askar kuzatuvida yolg‘iz yashashga ruxsat berildi.

Pavlusning Rimdagi faoliyati

17 Pavlus uch kundan keyin mahalliy yahudiylarning yo‘lboshchilarini chaqirdi. Ular
yig‘ilishgach, Pavlus dedi:

— Birodarlar! Men xalqimizga yoki ota–bobolarimiz odatlariga qarshi biron narsa
qilmagan bo‘lsam ham, meni Quddusda qamab, Rim amaldorlarining qo‘liga
topshirishdi. 18 Ular meni tekshirib ko‘rganlaridan keyin, meni ozod qilmoqchi bo‘ldilar,
chunki o‘limga loyiq biron ish qilmagan edim. 19 Ammo yahudiylar qarshilik
qilganlaridan keyin, men Qaysarning* hukmini talab qilishga majbur bo‘ldim. Men bu
bilan o‘z xalqimni ayblamoqchi emasman. 20 Shu sababdan men sizlar bilan ko‘rishib,
suhbatlashishni istadim. Aslini olganda, men Isroilning umidi* uchun zanjirband
qilinganman.

21 Ular Pavlusga dedilar:

— Siz to‘g‘ringizda Yahudiyadan bironta xat olmadik, bu yerga tashrif buyurgan
birodarlarimizdan birontasi ham siz to‘g‘ringizda biron xabar yoki hech qanday yomon
gap aytmadi. 22 Ammo fikringizni o‘zingizdan eshitishni istardik, chunki bu mazhabga*
nisbatan har yerda qarshi gapirib yurganlarini biz bilamiz.

23 Ular Pavlus bilan bir kunni kelishib oldilar. O‘sha kuni ular Pavlus turgan joyga bir
talay odamni boshlab keldilar. Pavlus ertalabdan kechgacha ularga Xudoning Shohligi
to‘g‘risida tushuntirdi. Shuningdek, Musoning Tavrot kitobidan va Payg‘ambarlar
bitiklaridan* Iso to‘g‘risida ishonchli dalillar keltirdi. 24 Ulardan ba’zilari Pavlusning
aytganlariga ishondilar, boshqalari esa umuman ishonmadilar. 25 Shunday qilib, ular
o‘zaro bahslashdilar. Ular ketmoqchi bo‘lib turganlarida Pavlus shunday dedi:
“Muqaddas Ruh Ishayo payg‘ambar orqali ota–bobolaringizga ushbu gapni to‘g‘ri aytgan
ekan:

26 «Bor, mana shu xalqqa ayt:

‘Sizlar tinglab turasiz–u, lekin hech tushunmaysiz,
Qarab turasiz–u, ammo hech anglab yetmaysiz.’
27 Zero, bu xalqning aqli o‘tmas bo‘lib qoldi,
Quloqlari garang bo‘ldi,
Ko‘zlarini yumib olishdi.
Aks holda, ko‘zlari ko‘rgan bo‘lardi,
Aks holda, quloqlari eshitgan bo‘lardi,
Aqllari anglagan bo‘lardi,
Yana Menga qaytgan bo‘lishardi,
Men ularga shifo bergan bo‘lardim.»*

28-29 Sizlarga shu ma’lum bo‘lsinki, Xudoning najoti g‘ayriyahudiylarga yuborilgan. Ular quloq soladilar*.”

30 Pavlus ijaraga olgan uyida ikki yil yashadi va uni ko‘rgani kelgan hammani qabul qildi. 31 U jasorat bilan Xudoning Shohligi haqida va’z aytib, Rabbimiz Iso Masih to‘g‘risida ta’lim berdi. Hech kim unga buni taqiqlashga urinmadi.

IZOHLAR

jamoat — Iso Masihga ishongan odamlar nazarda tutilgan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi JAMOAT so‘ziga qarang.

1:1-2 *Ey Teofilus, birinchi kitobimda…* — ya’ni Luqo bayon etgan muqaddas Xushxabarda. Mazkur kitob hamda Luqo bayon etgan muqaddas Xushxabar Teofilus uchun yozilgan (Luqo 1:1 ga qarang). Teofilus yuqori lavozim egasi bo‘lib, Xushxabar ta’limotidan boxabar edi. U haqda bundan boshqa hech qanday ma’lumot saqlanib qolmagan.

1:3 *Xudoning Shohligi* — Xudoning hozirgi paytda insonlar hayotidagi hukmronligi va oxiratda har bir yaratilgan mavjudotning yangilanishiga ishora. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi XUDONING SHOHLIGI iborasiga qarang.

1:4 *osmondagi Otam* — Xudoga ishora. Iso ko‘pincha Ota unvonini Xudoga nisbatan ishlatgan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi XUDONING NOMLARI iborasi ostida berilgan OTA so‘ziga qarang.

1:4 *osmondagi Otamning bergan va’dasi* — 2:33 ga va Luqo 24:49 ga qarang.

1:5 *Yahyo odamlarni suvga cho‘mdirar edi…* — Luqo 3:1-18 ga qarang.

1:12 *Zaytun deb atalgan tog‘* — Quddus shahrining sharqiy devori bo‘ylab o‘tgan Qidron soyligining narigi tomonidagi tepalik.

1:12 *taxminan bir chaqirim masofa* — yunoncha matnda *Shabbat kuni masofasi*, taxminan 1 kilometrga to‘g‘ri keladi. O‘sha davrda yahudiylarning Shabbat kuni haqidagi qonunni sharhlashlari bo‘yicha, Shabbat kunida faqatgina yaqin bir joyga yurish mumkin edi.

1:13 *vatanparvar* — bu nom Shimo‘nning Rim imperiyasiga qarshilik ko‘rsatgan avom xalq harakatining a’zosi ekaniga ishora qilayotgan bo‘lishi mumkin. Ushbu harakat a’zolari siyosiy, iqtisodiy va diniy maqsadlarni ko‘zlagan edilar.

1:16-17 *Yahudo* — Luqo 22:1-6, 47-48 ga qarang.

1:19 *Xaqaldamax* — oramiycha so‘z.

1:20 Zabur 68:26 ga qarang.

1:20 Zabur 108:8 ga qarang.

1:26 *qur’a* — qur’a tashlashda yog‘och bo‘laklari yoki toshlar ishlatilgan bo‘lib, shu orqali Xudoning xohish–irodasi aniqlangan. Ba’zan odamlar qur’a tashlab, Xudodan biror ishni qanday yoki qachon qilish kerakligini so‘rashgan.

2:1 *Hosil bayrami* — Iso O‘z shogirdlari bilan oxirgi marta Fisih taomini baham ko‘rgandan so‘ng (Luqo 22:7-8 ga qarang), 50 kun o‘tgach Hosil bayrami nishonlangan edi (Levilar 23:15-16 ga qarang).

2:10 *…yahudiy diniga kirgan…* — yahudiy diniga kirib, dinning hamma qonun–qoidalari va urf–odatlarini bajaradigan g‘ayriyahudiylar. Yahudiy diniga kirganlar sunnat qilinardilar. Bunday g‘ayriyahudiylar yahudiylar tomonidan g‘ayriyahudiy deb hisoblanmasdilar.

2:15 *soat to‘qqiz* — yunoncha matnda *uchinchi soat*, yahudiylarning urf–odatiga ko‘ra, kunning bu payti o‘sha soat bilan belgilanar edi.

2:17 *Oxirgi kunlar* — Iso Masih tirilganidan keyingi davrga ishora. Yana 1 Yuhanno 2:18, Ibroniylar 1:2, 9:26 ga qarang.

2:17-21 Yo‘el 2:28-32 ga qarang.

2:27 *o‘liklar diyori* — yahudiylar bu joyni, yer ostidagi tubsiz chuqurlik, marhumlar boradigan qorong‘i joy, deb tushunardi.

2:27 *Taqvodoring* — yunoncha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *Muqaddas bo‘lganing*.

2:25-28 Zabur 15:8-11 ga qarang.

2:30 *O‘z naslingdan bo‘lgan bittasini taxtingga o‘tqazaman* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *O‘z naslingdan bo‘lgan bittasini — Masihni tiriltirib, taxtingga o‘tqazaman*.

2:30 *ont* — 2 Shohlar 7:12-16, Zabur 131:11 ga qarang.

2:31 *…Dovud bashorat qilgandi* — shu bobning 27–oyatiga qarang.

2:33 *taxtining o‘ng tomoni* — o‘ng tomon muruvvat va baraka o‘rni deb hisoblangan.

2:34-35 Zabur 109:1 ga va o‘sha oyatning birinchi izohiga qarang.

2:36 *Masih* — bu unvonni yahudiylar kelajakda ularni dushmanlaridan qutqaradigan va butun yer yuzidagi xalqlar ustidan hukmronlik qiladigan insonga nisbatan ishlatganlar. Eski Ahdda Masihning qiladigan ishlari haqida bashoratlar yozilgan. Yangi Ahdga ko‘ra Rabbimiz Iso o‘sha Masihdir. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi MASIH so‘ziga qarang.

2:42 *Rabbimiz Isoni xotirlab, non sindirish* — bu iboraning ma’nosi quyidagicha: imonlilar Isoning o‘limini xotirlash maqsadida yakshanba kuni kechki payt (20:7 ga qarang) birga yig‘ilib taom tanovul qilishardi.

3:1 *soat uch* — yunoncha matnda *to‘qqizinchi soat*, yahudiylarning urf–odatiga ko‘ra, kunning bu payti o‘sha soat bilan belgilanar edi.

3:11 *Sulaymon ayvoni* — oldi ochiq, keng joy. Bu ayvon Ma’bad hovlisining sharqiy devori bo‘ylab qurilgan bo‘lishi mumkin. Uning qator baland ustunlari bo‘lgan. Shoh Hirod qurdirgan bu Ma’badning loyihasi va rasmi lug‘atdan keyin ilova qilingan “Rasmlar va loyihalar” bo‘limida berilgan.

3:13 *O‘zining Quli* — qul so‘zi bu o‘rinda Masihning unvoni (Ishayo 42:1-4, 52:13-53:12 ga qarang). Bu so‘z yunonchada *farzand* degan ma’noni ham bildiradi.

3:13 *Pilat* — Rim hukumati tomonidan Yahudiya viloyatiga tayinlangan hokim. U Isoni o‘limga mahkum qilgan edi (Luqo 23:1-25 ga qarang).

3:22-23 Qonunlar 18:15, 19 ga qarang.

3:25 *zurriyoting* — bu o‘rinda ishlatilgan yunoncha so‘z, Ibtido kitobidagi ibroniycha so‘z singari, Ibrohimning butun avlodiga yoki avlodidan kelib chiqadigan zurriyotining biriga ishora qilishi mumkin. Bu o‘rinda Butrus Ibrohimning zurriyoti bo‘lgan Iso Masihga ishora qilyapti.

3:25 Ibtido 22:18, 26:4 ga qarang.

3:26 *O‘z Quli* — shu bobning 13–oyatiga berilgan birinchi izohga qarang.

4:1 *ruhoniy* — Quddusdagi Ma’badda xizmat qiladigan e’tiborli din rahnamosi. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi RUHONIY so‘ziga qarang.

4:1 *Ma’bad mirshabboshisi* — Ma’badni qo‘riqlash va u yerda tartib saqlash uchun mas’ul bo‘lgan yahudiy harbiysi.

4:1 *sadduqiy* — yahudiylarning muhim bir diniy mazhabi. Farziylardan farqli ravishda, ular og‘zaki tarqalgan urf–odatlarni qabul qilmasdilar, balki faqatgina Tavrotda yozilgan qonun–qoidalarga rioya qilardilar. Ular o‘liklarning tirilishiga ham ishonmas edilar. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi SADDUQIY so‘ziga qarang.

4:5 *bosh ruhoniylar* — jamiyatning boshqa e’tiborli odamlari qatorida Oliy kengash a’zolari edilar. Oliy kengash yahudiylarning siyosiy va diniy kengashi edi. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi BOSH RUHONIYLAR iborasiga qarang.

4:5 *Tavrot tafsirchilari* — Musoning qonunini juda yaxshi bilgan ziyoli odamlar. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi TAVROT TAFSIRCHISI iborasiga qarang.

4:6 *Oliy ruhoniy Xanan* — Xanan milodiy 6-15 yillarda oliy ruhoniy bo‘lib xizmat qilgan. Rim hukumati uni bu lavozimdan chetlatgandan keyin uning o‘rnini kuyovi Kayafas egallab, milodiy 18-37 yillarda oliy ruhoniy bo‘lib xizmat qildi. Xanan o‘z vazifasidan chetlatilganiga qaramay, xalq uni hamon oliy ruhoniy deb bilardi, u yahudiylar jamiyatida yuksak e’tibor va nufuzga ega edi (Luqo 3:2 ga qarang).

4:11 *tamal toshi* — qadimgi paytlarda qurilishda poydevor uchun qo‘yilgan birinchi va eng muhim tosh hisoblanardi. Bu tosh poydevorning bir burchagini hosil qilib, binoning qolgan qismi o‘sha toshning joylashuvi bo‘yicha qurilardi.

4:11 Zabur 117:22 ga qarang.

4:13 *Kengash* — yahudiylarning siyosiy va diniy kengashi. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi OLIY KENGASH iborasiga qarang.

4:25-26 Muallif bu o‘rinda Zabur 2:1-2 ning qadimiy yunoncha tarjimasidan foydalangan.

4:27 *Hirod* — Antipas ismi bilan ham tanilgan bo‘lib, Buyuk Hirodning o‘g‘li edi. Antipas Jalila va Pereya hududlarida hukmronlik qilgan.

4:27 *Po‘ntiy Pilat* — 3:13 ning ikkinchi izohiga qarang.

4:27 *Quling* — qul so‘zi bu o‘rinda Masihning unvoni (Ishayo 42:1-4, 52:13-53:12 ga qarang). Bu so‘z yunonchada *farzand* degan ma’noni ham bildiradi.

4:27 *…Isoga qarshi to‘plandilar* — Luqo 23:1-25 ga qarang.

4:30 *Quling* — shu bobning 27–oyatiga berilgan uchinchi izohga qarang.

5:11 *jamoat* — Iso Masihga ishongan odamlar nazarda tutilgan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi JAMOAT so‘ziga qarang.

5:12 *Sulaymon ayvoni* — 3:11 izohiga qarang.

5:24 *Ma’bad mirshabboshisi* — 4:1 ning ikkinchi izohiga qarang.

5:30 *yog‘och* — Butrus xochga ishora qilib, Qonunlar 21:23 dagi *yog‘ochga qoqilgan*

odam Xudo tomonidan la'natlangandir degan gapni tinglovchilariga eslatmoqchi bo‘lgan.

5:31 *...O‘zining o‘ng tomoniga o‘tqazdi* — Zabur 109:1 ga qarang. O‘ng tomon muruvvat va baraka o‘rni deb hisoblangan.

5:34 *farziylar* — yahudiylarning muhim bir diniy mazhabi. Farziylar Tavrot qonunlariga qat'iy rioya qilardilar, og‘zaki ravishda tarqalgan urf–odatlarga hamda poklanish udumlariga izchil amal qilardilar. To‘liqroq ma'lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi FARZIY so‘ziga qarang.

6:1 *oramiyzabon* — bu o‘rinda ishlatilgan yunoncha so‘z ibroniy tilini yoki oramiy tilini bildirishi mumkin. O‘sha paytda qadimgi Falastinda yashagan yahudiylar odatda oramiy tilida gaplashar edilar.

6:5 *...yahudiy diniga kirgan...* — 2:10 izohiga qarang.

6:8 *Stefan Xudoning marhamatiga va ilohiy qudratga to‘lgan edi* — yunoncha matndan. Ba'zi yunon qo‘lyozmalarida *Stefan imoni komil va ilohiy qudratga to‘lgan edi*.

7:2 *...Xoron...Mesopotamiya...* — Xoron hozirgi Turkiyaning janubi–sharqida joylashgan shahar edi. Mesopotamiya esa Dajla va Furot daryolari orasida joylashgan hudud edi.

7:3 Ibtido 12:1 ga qarang.

7:4 *Xaldeylar yurti* — hozirgi Iroqning janubida, Fors qo‘ltig‘ining shimolidagi yerlar edi. Ibrohim Ur shahridan bo‘lib, Ur Xoron shahridan qariyb 900 kilometr janubi–sharqda joylashgan.

7:6-7 Ibtido 15:13-14, Chiqish 3:12 ga qarang.

7:8 *sunnat ahdi* — Ibtido 17:1-14 ga qarang.

7:14 *yetmish besh* — bu son Ibtido 46:27 ning va Chiqish 1:5 ning qadimiy yunoncha tarjimasidan olingan. Ibroniycha matnda bu son “yetmish” deb yozilgan. Ibtido 46:20 ning qadimiy yunoncha tarjimasida matnga beshta ism qo‘shilgan (Efrayim va Manashening o‘g‘illari va nabiralari), bu ismlar ibroniycha matnda yo‘q.

7:26-28 Chiqish 2:13-14 ga qarang.

7:29 *Midiyon yurti* — aynan qayerda joylashgani ma'lum emas. Bu yurt Misrdan sharqda, Sinay yarim orolida yo O‘lik dengizning janubidagi yerlarda yoki hozirgi Aqaba qo‘ltig‘ining sharq tomonida joylashgan bo‘lishi mumkin.

7:30 *bir farishta* — Egamizning farishtasi nazarda tutilgan (Chiqish 3:2 ga qarang), ba'zan shu yo‘l bilan Xudoning O‘zi zohir bo‘lishiga ishora qilinadi. To‘liqroq ma'lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi EGAMIZNING FARISHTASI iborasiga qarang.

7:30 *...buta alangasi ichida unga bir farishta zohir bo‘ldi* — Chiqish 3:1-10 ga qarang.

7:37 Yunoncha matndan. Ba'zi yunon qo‘lyozmalarida quyidagi so‘zlar Musoning gapiga qo‘shimcha qilingan: *unga quloq solinglar*.

7:37 Qonunlar 18:15 ga qarang.

7:40 Chiqish 32:1 ga qarang.

7:43 *Mo‘lax va Rayfon* — Mo‘lax Ommon xalqi sajda qilgan xudo edi, Rayfon esa Misrliklar sajda qilgan Saturn sayyora xudosi edi.

7:42-43 Stefan bu o‘rinda Amos 5:25-27 ning qadimiy yunoncha tarjimasidan

foydalangan. Amos payg‘ambar Isroil, ya’ni shimoliy shohlik aholisining miloddan oldingi 722 yilda Ossuriyaga surgun bo‘lganiga ishora qilgan. Mazkur oyatlarda esa Stefan Damashq shahri o‘rniga (Amos 5:26-27 ga qarang) Bobil nomini ishlatadi. Shu yo‘sinda u Yahudo, ya’ni janubiy shohlik aholisining miloddan oldingi 586 yilda Bobilga surgun bo‘lganiga ishora qiladi. Shu orqali Stefan Quddus va Yahudoda yashayotgan zamondoshlariga ota–bobolari Xudoga sadoqatsizlik qilganini eslatyapti.

7:44 *Muqaddas ahd chodiri* — yunoncha matnda *Guvohlik chodiri*, Muqaddas chodirning yana bir nomi. Yunoncha matndagi iboraning *guvohlik* so‘zi o‘nta amr yozilgan ikkita tosh lavhaga ishora qiladi. Bu tosh lavhalar Xudo va Uning xalqi o‘rtasida tuzilgan ahdning dalili, ya’ni toshga bitilgan guvohlik bo‘lib xizmat qilardi. Muso davrida bu ikki tosh lavha Muqaddas chodirdagi Ahd sandig‘ining ichida saqlanardi (Chiqish 40:20 ga qarang).

7:46 *…Yoqubning Xudosiga maskan…* — ba’zi yunon qo‘lyozmalaridan. Yunoncha matnda *…Yoqubning xonadoniga maskan…*, bu o‘rinda mazkur ibora *Yoqubning avlodi Xudoga sajda qiladigan Ma’bad* degan ma’noni bildiradi.

7:50 Ishayo 66:1-2 ga qarang.

7:51 *Ey yuraklari, quloqlari sunnat qilinmaganlar!* — sunnat Xudoning Ibrohim va uning avlodi bilan qilgan ahd belgisi edi (Ibtido 17:9-14 ga qarang). Sunnat yahudiylarning Xudoga sodiqligini va Uning tanlagan xalqiga tegishli ekanini ko‘rsatadi. Bu oyatdagi “yuraklari, quloqlari sunnat qilinmaganlar” iborasi ko‘chma ma’noda ishlatilib, tuzilgan ahdning tashqi belgisi bo‘lgan jismoniy sunnat yetarli emasligini ko‘rsatadi. Stefan bu so‘zlari bilan o‘sha yahudiy yo‘lboshchilari ham o‘z ota–bobolari singari, Xudoga sadoqatsiz va itoatsiz ekaniga urg‘u beryapti.

7:52 *Solih Zot* — Iso Masihga ishora.

7:53 *o‘sha qonun sizlarga farishtalar orqali berilgani* — Qonunlar 33:2-4, Galatiyaliklar 3:19, Ibroniylar 2:2 ga qarang.

7:55 *o‘ng tomoni* — o‘ng tomon muruvvat va baraka o‘rni deb hisoblangan.

7:56 *Inson O‘g‘li* — Iso Masih ko‘pincha O‘ziga nisbatan ishlatgan unvon. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi INSON O‘G‘LI iborasiga qarang.

7:58 *Shoul* — Pavlus ismi bilan tanilgan, u keyinchalik havoriy bo‘lgan (13:9 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang).

8:1 *Shoul* — Pavlus ismi bilan tanilgan, u keyinchalik havoriy bo‘lgan (13:9 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang).

8:5 *Filip* — 6:1-6 ga qarang.

8:5 *Samariyaning bosh shahri* — yunoncha matnda *Samariyaning shahri*. O‘sha paytda Samariya shaharning emas, balki bir hududning nomi bo‘lgan. Muallif Samariyadagi asosiy bir shaharga, ya’ni Sebastiyaga ishora qilayotgan bo‘lishi mumkin.

8:14 *Samariya aholisi* — yahudiylar va Samariyaliklar uzoq vaqt davomida bir–birlariga dushman bo‘lib kelganlar. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi SAMARIYALIK so‘ziga qarang.

8:27 *Habashiston malikasi* — yunoncha matnda *Habashiston malikasi Kandaki*. Fir’avn

so‘ziga o‘xshab, Kandaki so‘zi unvon bo‘lgan, bu malikaning ismi emas edi.

8:32-33 Muallif bu o‘rinda Ishayo 53:7-8 ning qadimiy yunoncha tarjimasidan foydalangan.

8:36-37 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida quyidagi so‘zlar 37–oyatni tashkil etib, qo‘shimcha qilingan: *Filip unga dedi: “Agar butun qalbingiz bilan ishonsangiz, bo‘ladi.” Amaldor dedi: “Iso Masih — Xudoning O‘g‘li deb ishonaman.”*

8:39 *…Egamizning Ruhi to‘satdan Filipni olib ketdi* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *Muqaddas Ruh amaldorni qamrab oldi va Egamizning bir farishtasi to‘satdan Filipni olib ketdi*.

8:40 *Azotus shahri* — Ashdod nomi bilan ham ma’lum. Bu shahar Filistiyada, O‘rta yer dengizi yaqinida joylashgan edi.

8:40 *Qaysariya* — Azotusdan 80 chaqirim masofada, O‘rta yer dengizi bo‘yida joylashgan shahar.

9:1 *Shoul* — Pavlus ismi bilan tanilgan, u keyinchalik havoriy bo‘lgan (13:9 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang).

9:5 *Hazratim!* — yunoncha matnda *Kurios!*. Bu o‘rinda obro‘–e’tiborli insonga nisbatan ishlatiladigan so‘z sifatida qo‘llangan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi XUDONING NOMLARI iborasi ostida berilgan RABBIY, RABBIM, RABBIMIZ… so‘ziga qarang.

9:5 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida quyidagi so‘zlar 5–oyatning oxiriga va 6–oyatning boshiga qo‘shimcha qilingan: *“…Ho‘kiz o‘z egasining tayog‘ini tepib, o‘ziga zarar keltirganday, sen ham Menga qarshi chiqib, o‘zingga zarar keltiryapsan.” [6] Shoul vahimaga tushib, titroq bilan: “Yo Rabbim, nima qilishimni buyurasan?” — dedi. Rabbimiz unga:….*

9:11 *Tarsus* — 21:39 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

9:20 *Xudoning O‘g‘li* — Iso Masihning unvoni. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi XUDONING O‘G‘LI iborasiga qarang.

9:25 *shahar devoridagi deraza* — qadimgi paytlarda shaharlarning baland, qalin devorlari bo‘lgan. Bu devorlar shaharni bosqinchilar hujumlaridan himoya qilardi. Ba’zan shahar devorlari ustiga uylar qurilgan. Shoul mana shunday bir uyning derazasidan pastga tushirilgan bo‘lishi mumkin.

9:27 *Barnabo* — 4:36 ga qarang.

9:30 *Qaysariya* — Quddusdan 90 kilometr shimoli–g‘arbda, O‘rta yer dengizi bo‘yida joylashgan shahar. U yerda Pavlus kemaga tushib, Tarsusga yo‘l olgan (21:39 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang).

9:32 *Lo‘d shahri* — Quddusdan 30 kilometr shimoli–g‘arbda joylashgan.

9:36 *Yaffa shahri* — Lo‘ddan 15 kilometr shimoli–g‘arbda joylashgan.

9:36 *…Tavita…Do‘rkas…* — Tavita uning oramiycha ismi edi. Ikkala tilda ham bu ismlarning ma’nosi — *ohu*.

9:39 *Tavita* — yunoncha matnda *Do‘rkas* (shu bobning 36–oyatiga qarang).

9:43 *ko‘nchi* — hayvonlarning xom terisiga ishlov beradigan kosib.

10:1 *Qaysariya* — Quddusdan 90 kilometr shimoli–g‘arbda, O‘rta yer dengizi bo‘yida joylashgan muhim shahar. Bu shahar Rim imperiyasiga qarashli bo‘lgan Yahudiya viloyatining poytaxti edi.

10:2 *...Xudodan qo‘rqardi* — muallif bu iborani yahudiylarning Xudosiga sajda qilgan g‘ayriyahudiylarga nisbatan ishlatgan. Ular yahudiy dinining qonun–qoidalarini bajarar edilar va ularning urf–odatlariga rioya qilardilar, ammo sunnat qilinmagan edilar (11:3 ga qarang).

10:3 *soat uch* — yunoncha matnda *to‘qqizinchi soat*, yahudiylarning urf–odatiga ko‘ra, kunning bu payti o‘sha soat bilan belgilanar edi. Shu bobning 30–oyatida ham bor.

10:5 *Butrus degan odam* — yunoncha matnda *Butrus degan Shimo‘n* (shu bobning 18, 32–oyatlarida ham bor). Iso Masih Shimo‘nga Butrus ismini bergan edi (Mark 3:16, Luqo 6:14 ga qarang). Ba’zan u haqda so‘z yuritilganda, ikkala ism ham birgalikda ishlatiladi.

10:6 *ko‘nchi* — 9:43 izohiga qarang.

10:6 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida quyidagi so‘zlar oyatga qo‘shimcha qilingan: *Uning senga aytadigan so‘zlaridan o‘zing bilan butun xonadoning najot topasizlar*.

10:9 *tush payti* — yunoncha matnda *oltinchi soat*, yahudiylarning urf–odatiga ko‘ra, kunning bu payti o‘sha soat bilan belgilanar edi.

10:9 *...tomga chiqqan edi* — u zamonlarda uylarning tomi tekis bo‘lib, odamlar tomga chiqib dam olishardi.

10:14 *harom yoki nopok narsalar* — Muso qonunlariga ko‘ra, harom hisoblangan, yeyish man etilgan jonivorlar (Levilar 11:1-47 ga qarang).

10:30 *...xuddi shu paytda — soat uchlarda uyimda ibodat qilayotgan edim. Birdan...* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *...xuddi shu paytda uyimda ro‘za tutayotgan edim. Soat uchlarda ibodat qilayotganimda, birdan...*.

10:32 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida quyidagi so‘zlar farishtaning gapiga qo‘shimcha qilingan: *Uning senga aytadigan so‘zlari bor*.

10:39 *yog‘och* — 5:30 izohiga qarang.

10:45 *yahudiy imonlilar* — yunoncha matnda *sunnat qilingan imonlilar*, Iso Masihga ishongan yahudiylar nazarda tutilgan.

10:46 *boshqa* — yoki *noma’lum*. Yana 2:4-8 ga qarang.

11:2 *yahudiy imonlilar* — yunoncha matnda *sunnat qilinganlar*, Iso Masihga ishongan yahudiylar nazarda tutilgan. Bu o‘rinda ularning Muso qonunlariga, ayniqsa sunnat haqidagi amriga (Ibtido 17:9-14 ga qarang), qat’iy rioya qilayotganlariga ishora bo‘lishi mumkin.

11:8 *harom yoki nopok narsalar* — 10:14 izohiga qarang.

11:13 *Butrus degan odam* — yunoncha matnda *Butrus degan Shimo‘n*. 10:5 izohiga qarang.

11:16 *degan so‘zlari* — 1:5 ga qarang.

11:20 *Antioxiya* — Rim imperiyasiga qarashli Suriya viloyatining poytaxti. Bu shahar butun Rim imperiyasida buyuk shaharlarning orasida uchinchi o‘rinda turgan.

11:20 *g‘ayriyahudiylar* — yunoncha matnda *yunonzabonlar*, ya’ni yahudiy bo‘lmagan, lekin yunon tilida so‘zlashuvchi, yunon urf–odatlariga rioya qiluvchi odamlar nazarda tutilgan. Ular yahudiylarning Xudosiga sajda qiladigan, “Xudodan qo‘rqadigan” deb nom olgan g‘ayriyahudiylar bo‘lsa kerak (10:2 izohiga qarang).

11:25 *Shoul* — Pavlus ismi bilan tanilgan (13:9 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang).

11:28 *Qaysar* — barcha Rim imperatorlariga berilgan unvon.

11:28 *Klavdiy* — milodiy 41-54 yillarda hukmronlik qilgan.

12:1 *Hirod* — Hirod Agrippa I ismi bilan ham tanilgan bo‘lib, Buyuk Hirodning o‘g‘li edi.

12:2 *Yoqub* — Iso Masihning o‘n ikki shogirdidan biri (1:13 ga qarang).

12:4 *Fisih bayrami* — Fisih ziyofatiga va undan keyin yetti kun davomida nishonlanadigan Xamirturushsiz non bayramiga ishora (shu bobning 3–oyatiga qarang). Bu bayramlar Isroil xalqining Misrdagi qullikdan ozod bo‘lishi munosabati bilan nishonlanar edi (Chiqish 12:1-42, 13:3-10 ga qarang).

12:15 *U Butrusning farishtasi* — yahudiylarning tasavvuriga ko‘ra har bir odamni qo‘riqlaydigan bir farishtasi bo‘lib, shu farishta o‘zi qo‘riqlaydigan odamning qiyofasida boshqalarga zohir bo‘lar ekan. Muqaddas Kitobdagi ba’zi oyatlarda farishtalar, odamlarga yordam berish uchun yuborilgan elchilar, deb yozilgan, ammo bundan tashqari farishtalarning aniq vazifasi haqida hech qanday ma’lumot berilmagan (Ibtido 48:16, Matto 18:10-11, Ibroniylar 1:4 ga qarang).

12:17 *Yoqub* — Isoning shogirdi Yoqub emas (shu bobning 2–oyatiga va o‘sha oyatning izohiga qarang), balki Quddusdagi jamoatning yetakchisi va Isoning ukasi Yoqub nazarda tutilgan (15:13, 21:18 ga va Mark 6:3, Galatiyaliklar 1:18-19 ga qarang).

12:19 *…Yahudiyadan Qaysariyaga…* — bu o‘rinda Yahudiya Rim imperiyasi tarkibidagi Yahudiya viloyatini emas, balki yahudiylar yashaydigan hududni bildiradi (Eski Ahdda bu hudud Yahudo deb atalgan). Qaysariya Yahudiya viloyatining poytaxti bo‘lib, Quddusdan 90 kilometr shimoli–g‘arbda joylashgan edi.

12:25 *Shoul* — Pavlus ismi bilan tanilgan (13:9 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang).

12:25 *…Quddusda topshiriqni bajarib bo‘lishgach…* — 11:27-30 ga qarang.

13:1 *viloyat hukmdori* — yunoncha matnda *tetrarx*. Bu unvon Rim imperiyasi tomonidan joriy qilingan bo‘lib, hokimiyati cheklangan va faqat Rim hukumati ruxsati bilan ish yuritadigan hukmdorga nisbatan qo‘llanilgan. Avom xalq orasida bunday hukmdor shoh deb atalar edi (misol uchun, Matto 14:9, Mark 6:14 ga qarang).

13:1 *Hirod* — 4:27 ning birinchi izohiga qarang.

13:1 *Shoul* — Pavlus ismi bilan tanilgan (shu bobning 9–oyatiga va o‘sha oyatning izohiga qarang).

13:4 *…Barnabo bilan Shoul yo‘lga tushdilar* — Pavlusning Xushxabar yoyish maqsadida qilgan birinchi safarining boshlanishi (“Xaritalar” bo‘limiga qarang). Ular Antioxiyaga

qaytib kelganlarida bu safar yakunlangan (14:26-28 ga qarang).

13:4 *Selevkiya shahri* — Antioxiyadan qariyb 20 kilometr g‘arbda, O‘rta yer dengizi bo‘yida joylashgan.

13:5 *Yuhanno* — Mark ismi bilan ham tanilgan (12:12, 25 ga qarang).

13:7 *orolning hokimi Sergiyus Pavlus* — Rim hukumati tomonidan tayinlangan hokim.

13:9 *Shoul, ya’ni Pavlus* — Pavlusning ibroniycha ismi Shoul, lotincha ismi Pavlus bo‘lgan. Kitobning shu joyidan boshlab, muallif uni Pavlus deb ataydi.

13:13 *Yuhanno* — Mark ismi bilan ham tanilgan (12:12, 25 ga qarang).

13:15 *Tavrot va Payg‘ambarlar bitiklari* — Tavrot (Musoning qonuni degan nom bilan ham yuritiladi) va Payg‘ambarlar bitiklari (uning tarkibiga ba’zi tarixiy kitoblar ham kirgan) Eski Ahd to‘plamining ikkita qismini nazarda tutgan.

13:16 *...Xudodan qo‘rqadigan...* — 10:2 izohiga qarang.

13:18 *...Xudo ularning sahrodagi qilmishlariga chidadi* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *Xudo sahroda ularga g‘amxo‘rlik qilgan*.

13:19 *yetti elat* — Qonunlar 7:1-2 ga qarang.

13:20 *450 yil* — Isroil xalqining Misrda bo‘lgan vaqtini (Ibtido 15:13 ga qarang), Sinay sahrosida yurgan paytlarni (Sahroda 32:13 ga qarang) va Kan’on yurtini bosib olgan va qabilalarga bo‘lib bergan paytni o‘z ichiga oladi.

13:22 1 Shohlar 13:14, Zabur 88:21 ga qarang.

13:25 *Yahyo...degan edi* — Yuhanno 1:20, Luqo 3:15-16 ga qarang.

13:28 *Pilat* — 3:13 ning ikkinchi izohiga qarang.

13:29 *yog‘och* — 5:30 izohiga qarang.

13:32-33 Zabur 2:7 ga qarang.

13:34 Muallif bu o‘rinda Ishayo 55:3 ning qadimiy yunoncha tarjimasidan foydalangan.

13:35 *Taqvodoring* — yunoncha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *Muqaddas bo‘lganing*.

13:35 Zabur 15:10 ga qarang.

13:41 Muallif bu o‘rinda Xabaqquq 1:5 ning qadimiy yunoncha tarjimasidan foydalangan.

13:43 *...yahudiy diniga kirgan...* — 2:10 izohiga qarang.

13:47 Ishayo 49:6 ga qarang.

13:50 *...Xudodan qo‘rqadigan...* — 10:2 izohiga qarang.

13:51 *...ogohlantirish tariqasida oyoqlarining changini qoqib...* — odamlar Xudoning elchilarini rad etganlari uchun, havoriylar oyoqlaridagi changni qoqib ketardilar. Havoriy Pavlus ham shunga o‘xshash harakatni ishlatgan (18:6 ga qarang). Bu harakat o‘sha odamlarning ayanchli qismatini, ya’ni Xudo tomonidan rad etilishini va Uning shohligidan benasib qolish xavfini anglatardi.

14:1 *Ikoniya shahri* — Ikoniya, Listra va Darba shaharlari Likoniyada joylashgan edi (shu bobning 6–oyatiga qarang). Likoniya Rimning Galatiya viloyatidagi bir tuman

bo‘lgan.

14:1 *g‘ayriyahudiylar* — yunoncha matnda *yunonlar*. O‘sha davrda *yunonlar* so‘zi nafaqat millati yunon bo‘lgan, balki yunon tilida so‘zlashuvchi, yunon urf–odatlariga rioya qiluvchi odamlarga nisbatan ham ishlatilgan. Sinagogalarga borib, u yerdagi marosimlarda qatnashadigan g‘ayriyahudiylar “Xudodan qo‘rqadiganlar” deb atalgan (10:2 izohiga qarang).

14:10 *O‘rningdan tur!* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *Rabbim Iso Masih nomidan senga aytaman: o‘rningdan tur!*

14:12 *…Zevs…Xermes…* — qadimdagi yunonlarning xudolaridan ikkitasi. Zevs — oliy xudo, Xermes esa hamma xudolarning, xususan Zevsning elchisi hisoblangan.

14:14 *…kiyimlarini yirtdilar…* — bu harakat yuz berayotgan voqeadan ularning hayratlanib, iztirobga tushganlarini ko‘rsatadi.

14:18 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida quyidagi so‘zlar oyatga qo‘shimcha qilingan: *va ularni uy–uylariga yubordilar. O‘zlari esa yana shu yerda ta’lim berishni davom etdilar*.

14:19 *…kelib, xalqni o‘zlariga og‘dirib oldilar. Ular…* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *…u yerga keldi. Havoriylar jasorat bilan va’z aytib turganda, o‘sha yahudiylar: “Ular biron haqiqatni aytishgani yo‘q, hamma so‘zlari yolg‘on”, deb xalqni havoriylardan yuz o‘girishga undadilar. Xalqni o‘zlariga og‘dirib olgach, ular….*

14:26 *…jamoat ularni…Xudoning marhamatiga topshirgan edi* — 13:1-3 ga qarang.

15:1 *Yahudiyadan bir necha odam* — Iso Masihga ishongan yahudiylar bo‘lib, ular Muso qonunlariga, ayniqsa sunnat haqidagi amriga (Ibtido 17:9-14 ga qarang), qat’iy amal qilishardi.

15:4 *…qilgan ishlarini…* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *…qilgan ishlarini, Xudo g‘ayriyahudiylarga imon eshigini qanday ochganini….*

15:13 *Yoqub* — 12:17 izohiga qarang.

15:14 *Butrus* — yunoncha matnda *Shimo‘n*, Butrusning yana bir ismi (10:5 ga qarang).

15:16-18 Muallif bu o‘rinda Amos 9:11-12 ning qadimiy yunoncha tarjimasidan foydalangan.

15:20 *Butlarga keltirilgan qurbonlikning go‘shtini tanovul qilishdan…* — 1 Korinfliklar 8:1-13, 10:23-32 oyatlarga va 1 Korinfliklar 8:1 izohiga qarang.

15:20 *fahsh–zino* — g‘ayriyahudiylar orasida keng tarqalgan bo‘lib, butparastlarning diniy marosimlaridan o‘rin olgan.

15:20 *…qoni chiqarilmagan hayvonning go‘shtini yeyishdan…* — yunoncha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *…bo‘g‘ib o‘ldirilgan hayvonning go‘shtini va qonini tanovul qilishdan….* Bularning ikkalasi ham aslida bir g‘oyani — qoni chiqarilmagan go‘shtni yemaslikni bildiradi (Ibtido 9:4, Levilar 17:10-14 ga qarang). Bunday go‘shtni taqvodor yahudiylar oldida yeyish ularni haqoratlash bilan teng bo‘lardi.

15:20 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida quyidagi so‘zlar oyatga qo‘shimcha qilingan: *va o‘zlaringiz uchun istamagan narsani o‘zgaga qilmanglar* (shu bobning 29–oyatida ham bor).

15:23 *Antioxiya, Suriya va Kilikiya* — bu paytda Suriya va Kilikiya Rim imperiyasi tarkibidagi bir viloyat hisoblangan, Antioxiya shu viloyatning eng katta shahri bo‘lgan.

15:24 *…sizlarni xavotirga solibdi, yuraklaringizni g‘ash qilibdi* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *sizlarni xavotirga solibdi, sunnat qilinishingiz kerak, Musoning Qonuniga rioya qilishingiz kerak, deb yuraklaringizni g‘ash qilibdi*.

15:29 *…sizlar…o‘zlaringizni tiyinglar* — shu bobning 20–oyatiga berilgan izohlarga qarang.

15:33-34 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida quyidagi so‘zlar 34–oyatni tashkil etib, qo‘shimcha qilingan: *Ammo Silas u yerda qolishga qaror qildi*. Boshqa bitta yunon qo‘lyozmasida esa shu o‘ringa quyidagi so‘zlar qo‘shimcha qilingan: *Ammo Silas, bu yerda qolamiz, deb qaror qildi, Yahudo bir o‘zi Quddusga qaytdi*.

15:38 *Mark ularni Pamfiliyada qoldirib…* — 13:13 ga qarang.

15:40 *…ular yo‘lga chiqdilar* — Pavlusning Xushxabar yoyish maqsadida qilgan ikkinchi safarining boshlanishi (“Xaritalar” bo‘limiga qarang). Pavlus Antioxiyaga qaytib kelganda bu safar yakunlangan (18:22 ga qarang).

16:3 *…yahudiylar sababli uni sunnat qildirdi* — 2:10 izohiga qarang.

16:8 *Troas* — Makedoniyaning qarshi tomonida, Egey dengizi bo‘yida joylashgan shahar.

16:10 *biz* — safarning mana shu qismida mazkur kitob muallifi Luqo Pavlus bilan birga bo‘lgan (shu bobning 10-17–oyatlariga qarang). 20:5-15, 21:1-18, 27:1-28:16 da ham bor.

16:12 *Makedoniya viloyatining Birinchi tumanidagi shahar* — yoki *Makedoniya viloyatining o‘sha qismidagi muhim bir shahar*.

16:14 *xudojo‘y* — muallif bu so‘zni yahudiylarning Xudosiga sajda qilgan g‘ayriyahudiylarga nisbatan ishlatgan (10:2 izohiga qarang).

16:37 *Rim fuqarosi bo‘lsak ham…* — Rim fuqarolari qilgan jinoyatlari uchun sud qilinmasdan oldin jazoga tortilmas edilar. Hattoki, Rim fuqarosi birorta jinoyatda aybdor, deb topilgan bo‘lsa ham uni kaltaklash qonunga xilof edi. Yana 22:22-29 ga qarang.

17:2 *Muqaddas bitiklar* — odatda Eski Ahd kitoblari to‘plami shu nom bilan ataladi.

17:4 *…Xudodan qo‘rqadigan…* — 10:2 izohiga qarang.

17:4 *g‘ayriyahudiylar* — yunoncha matnda *yunonlar* (shu bobning 12, 17–oyatlarida ham bor). 14:1 ning ikkinchi izohiga qarang.

17:7 *Qaysar* — barcha Rim imperatorlariga berilgan unvon.

17:9 *garov* — bu o‘rinda ishlatilgan yunoncha so‘z Pavlus va Silas birorta tashvish qo‘zg‘atmay shahardan chiqib ketsa, Yasonga qaytariladigan to‘lovni bildiradi.

17:15 *…uni Afinagacha olib borib qo‘ydilar* — ular Egey dengizi bo‘ylab kemada, keyin esa piyoda Afinaga borgan bo‘lishi mumkin.

17:18 *epikurchi va stoik faylasuflar* — falsafiy aqida bo‘yicha bir–biriga zid ikki ta’limot. Epikurchilarning ta’limotiga ko‘ra eng ezgu narsa bu — betashvish, lazzatli va azob–

uqubatdan xoli bo‘lgan hayot. Stoiklarning ta’limotiga ko‘ra esa eng ezgu narsa bu — o‘zini tiyish, burchni vijdonan bajarish, taqdir zarbalariga bardoshli bo‘lish, mo‘tadillik va sabr–toqat.

17:18 *Pavlus…va’z qilayotgani uchun ular shunday deb aytardilar* — matndagi o‘liklardan tirilish iborasi yunon tilida “anastasis” deb aytiladi. Pavlus nutqida “anastasis” so‘zini ishlatgani uchun, tinglovchilar bu so‘zni birorta xudoning nomi deb tushungan bo‘lishlari mumkin. Ehtimol, shu sababdan ular, Pavlus “Iso va Anastasis” haqida gapiryapti, deb o‘ylangandirlar.

17:28 *…bir odamning aytishi bo‘yicha…* — bu oyatda Pavlus Afinaliklarga tanish bo‘lgan qadimiy shoirlardan ikkitasining she’ridan misol keltirgan.

18:2 *Qaysar* — barcha Rim imperatorlariga berilgan unvon.

18:2 *Klavdiy* — milodiy 41-54 yillarda hukmronlik qilgan.

18:4 *g‘ayriyahudiylar* — yunoncha matnda *yunonlar* (14:1 ning ikkinchi izohiga qarang). Sinagogalarga borib, u yerdagi marosimlarda qatnashadigan g‘ayriyahudiylar “Xudodan qo‘rqadiganlar” deb atalgan (10:2 izohiga qarang).

18:6 *Pavlus kiyimlaridan changni qoqdi–da…* — 13:51 izohiga qarang.

18:7 *Titas Yustus* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *Yustus*.

18:7 *xudojo‘y* — muallif bu so‘zni yahudiylarning Xudosiga sajda qilgan g‘ayriyahudiylarga nisbatan ishlatgan (10:2 izohiga qarang).

18:12 *Gallion Axaya viloyatiga hokimlik qilgan paytlarda…* — Gallion milodiy 51-52 yillarda Rim imperiyasiga qarashli Axaya viloyatining hokimi bo‘lgan.

18:18 *Pavlus Xudoga ont ichgani uchun…sochini oldirdi* — Pavlusning ma’lum bir muddat davomida sochini oldirmaslik haqida bergan alohida bir va’dasiga ishora qilinayotgan bo‘lishi mumkin. Ehtimol, Pavlus bu va’dani Xudodan himoya so‘rab ibodat qilayotganda bergandir (shu bobning 9-11–oyatlariga qarang). O‘sha muddat tugagandan keyin Pavlus Xudoga shukrona sifatida sochini oldirgan.

18:19-21 *Xudo xohish bildirsa…* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *Yaqinlashib kelayotgan bayramni men albatta Quddusda nishonlashim kerak. Ammo Xudo xohish bildirsa…*.

18:23 *…yana yo‘lga chiqdi…* — Pavlusning Xushxabar yoyish maqsadida qilgan uchinchi safarining boshlanishi (“Xaritalar” bo‘limiga qarang). Pavlus Quddusga qaytib kelganda bu safar yakunlangan (21:12-17 ga qarang).

18:24 *Muqaddas bitiklar* — odatda Eski Ahd kitoblari to‘plami shu nom bilan ataladi.

18:25 *…faqatgina Yahyoning ta’limotini bilardi* — Apollos hali Iso Masih nomi bilan suvga cho‘mdirilish haqida eshitmagan edi. 2:37-38, 19:1-5 ga va Luqo 3:1-18 ga qarang.

19:6 *boshqa* — yoki *noma’lum*. Yana 2:4-8 ga qarang.

19:10 *g‘ayriyahudiylar* — yunoncha matnda *yunonlar* (shu bobning 17–oyatida ham bor). 14:1 ning ikkinchi izohiga qarang.

19:17 *g‘ayriyahudiylar* — yunoncha matnda *yunonlar*. 14:1 ning ikkinchi izohiga

qarang.

19:19 *kumush tanga* — yunoncha matnda *kumush bo'lak*, draxma deb atalgan yunon tangasiga ishora. Draxma yunon tangasi edi. Qiymati Rimdagi bir *dinor* qiymatiga teng kelar edi. Bir dinor mardikorning bir kunlik ish haqi edi.

19:24 *Artemis* — Artemida ismi bilan ham tanilgan, Efesda sajda qilingan hosildorlik ma'budasining mahalliy ifodasi. Artemisning buyuk ma'badi dunyoning yettita mo'jizalaridan biri bo'lib, Efes shahrining yaqinida joylashgan edi.

19:35 *osmondan tushgan haykal* — bu tasvirni odamlar jannatdan yuborilgan, tabarruk deb hisoblashardi. Ehtimol, Artemisning dastlabki tasviri meteor bo'lgandir.

20:2 *Yunoniston* — Rim imperiyasiga qarashli Axaya viloyatiga ishora. Pavlus Axayaning poytaxti Korinfda birmuncha vaqt turgan bo'lishi mumkin.

20:5 *biz* — 16:10 izohiga qarang.

20:6 *Xamirturushsiz non bayrami* — 12:4 izohiga qarang.

20:7 *Rabbimiz Isoni xotirlab, non sindirish* — 2:42 izohiga qarang.

20:15 *...Samos oroliga, uning ertasiga...* — yunoncha matndan. Ba'zi yunon qo'lyozmalarida *Samos oroliga o'tib, Trogillion shahrida to'xtagandan keyin, yana bir kundan so'ng...*.

20:21 *g'ayriyahudiylar* — yunoncha matnda *yunonlar*. 14:1 ning ikkinchi izohiga qarang.

20:35 *Rabbimiz Iso aytgan shu so'zlar* — bu so'zlar Yangi Ahd tarkibidagi to'rtta "Xushxabar" kitoblariga kiritilmagan, chunki Isoning qilgan ishlari va aytgan so'zlarining hammasi ham yozib qoldirilmagan (Yuhanno 20:30-31 ga qarang).

21:1 *Biz* — 16:10 izohiga qarang.

21:3 *Finikiya* — yunoncha matnda *Suriya*. O'sha davrda Finikiya Rim imperiyasiga qarashli Suriya viloyatining bir qismi edi. Hozirgi Livan mamlakatining dengiz bo'yidagi hududi.

21:8 *yetti kishi* — 6:1-6 ga qarang.

21:10 *Xagabus* — 11:27-28 ga qarang.

21:11 *g'ayriyahudiylar* — o'sha davrda Yahudiyada hukmronlik qilgan Rim imperiyasi amaldorlariga ishora.

21:18 *Yoqub* — 12:17 izohiga qarang.

21:21 *...bolalaringizni sunnat qilmanglar...* — sunnat Xudoning Ibrohim va uning avlodi bilan qilgan ahd belgisi edi (Ibtido 17:9-14 ga qarang). Sunnat yahudiylarning Xudoga sodiqligini va Uning tanlagan xalqiga tegishli ekanini ko'rsatadi.

21:23 *nazr atagan to'rtta odam* — bu erkaklar ma'lum bir muddat davomida sharob ichmaslikka va sochlarini oldirmaslikka ont ichgan edilar. Bu ont ularning Xudoga nazr sifatida bag'ishlanganini ko'rsatar edi (Sahroda 6:1-21 ga qarang). Belgilangan muddat o'tgandan keyin ular sochini oldirib, uni qurbonlikka qo'shib Ma'badda nazr qilishlari kerak edi. Boshqa bir odam, nazr atagan odamga pul berib, qurbonlik qilinadigan hayvonni sotib olish uchun yordam ko'rsatishi mumkin edi. Bu yordam xudojo'ylik va

saxiylik belgisi edi. Pavlus yahudiy dinining rasm–rusumlariga qarshi emasligini ko‘rsatish maqsadida, o‘sha to‘rtta odam bilan birga ontni bajarib, qurbonliklarning barcha xarajatlarini o‘zi to‘lagan.

21:25 *...biz ularga maktub jo‘natib...* — 15:23-29 ga qarang.

21:25 *Butlarga keltirilgan qurbonlik go‘shtini va qoni chiqarilmagan hayvon go‘shtini tanovul qilishdan hamda fahsh–zinodan...* — 15:20 ning izohlariga qarang.

21:28 *g‘ayriyahudiylar* — yunoncha matnda *yunonlar*. 14:1 ning ikkinchi izohiga qarang.

21:28 *...u g‘ayriyahudiylarni Ma’badga olib kelib...* — Ma’badning faqatgina yahudiylar kirishi mumkin bo‘lgan joylari nazarda tutilgan. G‘ayriyahudiylar faqatgina Ma’badning “g‘ayriyahudiylar hovlisi” deb atalgan tashqi hovlisiga kira olar edilar. Ma’badning ichki hovlisiga kirgan g‘ayriyahudiylar o‘limga mahkum qilinardilar. Ma’badda bu haqda ogohlantiruvchi yozuvlar bo‘lgan. G‘ayriyahudiylarni Ma’badning ichki hovlisiga olib kirgan inson ham o‘limga mahkum qilinishi mumkin edi. Shoh Hirod qurdirgan bu Ma’badning loyihasi va rasmi lug‘atdan keyin ilova qilingan “Rasmlar va loyihalar” bo‘limida berilgan.

21:34 *qal’a* — Rim sipohlari joylashgan Antoniya qal’asi nazarda tutilgan. Bu qal’a Ma’badning shimoli–g‘arb tomonida joylashgan edi.

21:39 *Tarsus shahri* — Rim imperiyasiga qarashli Kilikiya viloyatining poytaxti bo‘lgan. Hozirgi Turkiyaning janubida, O‘rta yer dengizi yaqinida joylashgan edi. Bu shahar savdo markazi bo‘lib, u yerda ko‘plab o‘quv yurtlari bor edi.

21:40 *oramiy tili* — bu o‘rinda ishlatilgan yunoncha so‘z ibroniy tilini yoki oramiy tilini bildirishi mumkin. O‘sha paytda qadimgi Falastinda yashagan yahudiylar oramiy tilida gaplashar edilar.

22:2 *oramiycha* — 21:40 izohiga qarang.

22:3 *Tarsus shahri* — 21:39 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

22:3 *Gamaliyol* — mashhur yahudiy olimi va tafsirchisi (5:33-40 ga qarang).

22:7 *Shoul* — Pavlus ismi bilan tanilgan (13:9 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang).

22:9 *...nurni ko‘rardilar–u...* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *nurni ko‘rib qo‘rqishgan bo‘lsa–da*.

22:14 *Solih Zot* — Iso Masihga ishora.

22:20 *Shohiding...* — yoki *Shahiding...*, bu o‘rindagi yunoncha so‘z shohid va shahid ma’nolarini ifodalayotgan bo‘lishi mumkin. 7:54-8:1 ga qarang.

22:25 *Rim fuqarosi* — 16:37 izohiga qarang.

23:5 Chiqish 22:28 ga qarang.

23:9 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida quyidagi so‘zlar oyatga qo‘shimcha qilingan: *biz Xudoga qarshilik ko‘rsatmaylik*.

23:10 *qal’a* — 21:34 izohiga qarang.

23:23 *Qaysariya* — Quddusdan 90 kilometr shimoli–g‘arbda, O‘rta yer dengizi bo‘yida joylashgan muhim shahar. Bu shahar Rim imperiyasiga qarashli bo‘lgan Yahudiya

viloyatining poytaxti edi.

23:24 *hokim Feliks* — Rim imperiyasiga qarashli Yahudiya viloyatining hokimi.

23:30 Yunoncha matndan. Ba'zi yunon qo'lyozmalarida quyidagi so'zlar oyatga qo'shimcha qilingan: *Salomat bo'ling*.

23:31 *Antipatris shahri* — Quddusdan 60 kilometr shimoli–g'arbda joylashgan.

23:35 *Hirodning saroyi* — aslida Buyuk Hirod tomonidan qurilgan. Saroy bu davrda Rim imperiyasiga qarashli Yahudiya viloyati hokimlarining idorasi bo'lgan.

24:1 *Qaysariya* — 23:23 izohiga qarang.

24:1 *hokim* — Feliks, Rim imperiyasiga qarashli Yahudiya viloyatining hokimi.

24:5 *nasroniylar mazhabi* — nasroniy nomi Iso ulg'aygan shahar Nosiraning nomidan kelib chiqqan. Bu davrda ko'p odamlar masihiylarni yahudiy dinining bir mazhabi deb hisoblardilar.

24:6-7 Yunoncha matndan. Ba'zi yunon qo'lyozmalarida quyidagi so'zlar 6–oyatning oxirini, 7–oyatni va 8–oyatning boshini tashkil etib, qo'shimcha qilingan: *Uni o'z qonunimizga ko'ra, sud qilmoqchi bo'ldik. [7] Lekin mingboshi Lisiyas kelib, uni zo'rlik bilan qo'limizdan tortib olib, [8] sizning qoshingizga yubordi. Biz ham sizning huzuringizga kelib, unga ayb qo'yishimizni buyurdi.*

24:14 *Tavrot…Payg'ambarlar bitiklari…* — odatda yahudiylar, Eski Ahd to'plami uch qismdan iborat, deb aytadilar. Bu uch qism quyidagilardir: Tavrot (Musoning qonuni degan nom bilan ham yuritiladi), Payg'ambarlar bitiklari (uning tarkibiga ba'zi tarixiy kitoblar ham kirgan) va Bitiklar (Zabur bu qismning birinchi kitobidir). Yahudiylar ba'zan dastlabki ikki qism "Tavrot va Payg'ambarlar bitiklari" deganda butun Eski Ahd to'plamini nazarda tutadilar.

24:24 *Drusilla yahudiy edi* — u Hirod Agrippa II ning va Vernikaning singlisi bo'lgan (25:13 ga va o'sha oyatning izohiga qarang).

25:1 *Qaysariya* — 23:23 izohiga qarang.

25:8 *Qaysar* — barcha Rim imperatorlariga berilgan unvon.

25:11 *…men Qaysarning hukmini talab qilaman* — Pavlus Rim fuqarosi bo'lgan, shuning uchun o'z da'vosini Rim imperatori eshitishini talab qilishga haqi bor edi. Bu davrda Rim imperatori Neron edi.

25:13 *…shoh Agrippa…Vernika…* — Agrippa yana Hirod Agrippa II nomi bilan ham tanilgan edi. U Buyuk Hirodning avlodi bo'lib, hududning Rim hukumati tomonidan belgilab berilgan qismlarida hukmronlik qilardi. Vernika uning singlisi edi, ularning otasi Hirod Agrippa I edi (12:1 ga qarang).

26:1 *Agrippa* — 25:13 izohiga qarang.

26:6 *…umid qilganim…* — Pavlus bu o'rinda o'liklarning tirilishi haqidagi Eski Ahdda ayon qilingan ishonchga ishora qilyapti (misol uchun, Zabur 15:9-11, Ishayo 26:19, Doniyor 12:2, Luqo 20:37-38 ga qarang). Farziylar ham bunga ishonganlar (23:6-8, 24:12-15, 20-21 ga qarang). Istehzoli tomoni shundaki, Pavlus Iso Masihning o'likdan tirilganiga ishongani uchun yahudiylar tomonidan hukm qilinayotgan edi. Ammo Masihning o'likdan tirilishi yahudiylar anchadan beri intizorlik kutganlarining ro'yobga

chiqishining boshlanishi edi (shu bobning 22-23–oyatlariga qarang).

26:7 *xalqimizning o‘n ikki qabilasi* — Ibrohimning nabirasi Yoqubning o‘n ikki o‘g‘lidan kelib chiqqan butun yahudiy xalqiga ishora.

26:14 *oramiy tili* — 21:40 izohiga qarang.

26:14 *Shoul* — Pavlus ismi bilan tanilgan (13:9 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang).

26:22 *payg‘ambarlarning va Musoning aytganlari* — Luqo 24:25-27 ga qarang. Yana 24:14 izohiga qarang.

26:32 *Qaysar* — barcha Rim imperatorlariga berilgan unvon.

26:32 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida quyidagi so‘zlar oyatga qo‘shimcha qilingan: *Shunday qilib, hokim uni Qaysar oldiga yuborishga qaror qildi*.

27:1 *Biz* — 16:10 izohiga qarang.

27:1 *...Italiyaga...* — Pavlusning Rimga olib ketilishi (“Xaritalar” bo‘limiga qarang). Pavlusning Rimga yetib borgani haqida 28:16 da yozilgan.

27:2 *bandargoh* — kemalar to‘xtaydigan joy, port. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi BANDARGOH so‘ziga qarang.

27:9 *Poklanish kuni* — yahudiylarning bu bayrami sentabrning oxirida nishonlangan (Levilar 16:29-34 ga qarang). Ob–havo faslga qarab o‘zgarib turgani sababli, sentabr oyining o‘rtasidan keyin, O‘rta yer dengiziga kemada chiqish xavfli edi. Odatda noyabr oyining o‘rtalaridan boshlab, to mart oyining o‘rtalarigacha bu dengizda hech qanday kema yurmas edi.

27:12 *...qattiq qish shamollaridan panada edi* — yunoncha matnda *...janubi–g‘arb va shimoli–g‘arbga qaratilgan edi*.

27:16 *Kavda* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *Klavda*.

27:17 *Surtis* — Sidra deb atalgan ko‘rfaz, hozirgi Liviya mamlakatining hududiga kiradi. Ko‘rfazning sayoz joylari va ko‘chib turadigan qumlari bo‘lgani bois, bu yer dengizchilar uchun juda xavfli edi. Qadimgi paytlarda bu joy “dengizchilarning qabristoni” deb nom olgan edi.

27:17 *tezlikni kamaytiradigan langar* — bu o‘rinda ishlatilgan yunoncha so‘z kemaning orqasidan sudraladigan langarga ishora qilishi mumkin. Ehtimol, bu langar odatdagi langardan farqli ravishda konus shaklidagi katta, maxsus bir mato bo‘lib, kemaning orqasidan suvga tashlangan bo‘lishi mumkin. Suvga to‘lgan mato kemaning tezligini sekinlashtirardi. Bo‘ron kemani Surtisga olib ketmasligi uchun, dengizchilar shu langardan foydalanganlar.

27:24 *Qaysar* — barcha Rim imperatorlariga berilgan unvon.

27:27 *O‘rta yer dengizi* — yunoncha matnda *Adriyas dengizi*, bu Krit va Malta orollari orasidagi O‘rta yer dengizining hududiga ishora qiladi.

27:28 *...20 quloch...15 quloch...* — taxminan 37 metrga va 27 metrga to‘g‘ri keladi.

28:1 *Biz* — 16:10 izohiga qarang.

28:11 *“Egizak xudolar”* — qadimiy yunonlar Zevsning o‘g‘illari, deb hisoblagan ikki but — Kastor va Polluksning unvoni. Bu ikki but dengizchilarning homiylari deb

hisoblangan, shuning uchun ularga asosan dengizchilar sajda qilgan.

28:15 *...Appiyus bozori...Uch mehmonxona...* — Rimga olib boradigan asosiy yo‘lning bo‘yidagi ikki joy, ular shahardan janubi–sharq tomonda, taxminan 70 kilometr va 55 kilometr masofada joylashgan.

28:16 *Biz Rimga kelganimizdan keyin, Pavlusga...* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *Biz Rimga kelganimizdan keyin, yuzboshi mahbuslarni lashkarboshiga topshirdi. Pavlusga esa...*.

28:19 *Qaysar* — barcha Rim imperatorlariga berilgan unvon.

28:20 *Isroilning umidi* — 26:6-8 oyatlarga va 26:6 izohiga qarang.

28:22 *bu mazhab* — 24:5 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

28:23 *...Musoning Tavrot kitobi...Payg‘ambarlar bitiklari...* — 24:14 izohiga qarang.

28:26-27 Muallif bu o‘rinda Ishayo 6:9-10 ning qadimiy yunoncha tarjimasidan foydalangan.

28:28-29 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida quyidagi so‘zlar 29–oyatni tashkil etib, qo‘shimcha qilingan: *Pavlus shu gaplarni aytgandan keyin, yahudiylar o‘zaro qattiq bahslashib, ketib qoldilar*.

YOQUBNING
MAKTUBI

Kirish

Mazkur maktub muallifi Isoning ukasi Yoqubdir. Iso Masih yer yuzida xizmat qilgan davrda Yoqub Unga ishonmagan edi, Uning xizmatini ham ma’qullamagan edi. Masih o‘likdan tirilgandan keyin esa Yoqub Unga ishonib*, Quddusdagi jamoat yetakchisi bo‘ldi. Muallif ushbu maktubini Iso Masihga imon keltirgan yahudiylarga yo‘llaydi. Imonlilar o‘sha davrda quvg‘inlar oqibatida Quddusdan uzoq joylarga tarqalib ketgan bo‘lishlari mumkin (Havoriylar 8:1 ga qarang).

Mazkur maktub imonlilar uchun hayotiy qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi, imon faqat tilda emas, balki amalda qo‘llanilishi kerak degan g‘oyani ilgari suradi. Muallif ko‘plab majoziy obrazlardan foydalangan holda, xulq–atvor va kundalik hayotga oid ko‘rsatmalar beradi. U donolik, masihiylarning yurish–turishi, odamlarga va vaziyatga munosabat, boylik va kambag‘allik, vasvasa va sinovlar, imon va amal kabi turli mavzular borasida so‘z yuritadi. Shuningdek, beqarorlik, mag‘rurlik, manmanlik, ochko‘zlik, badnafslik, ikkiyuzlamachilik kabi illatlarni ayovsiz tanqid qiladi. Xullas, imonli odam imoni bo‘yicha yashashi kerak, deb ta’kidlaydi.

1–BOB

Duoyi salom

1 Men — Xudoning va Rabbimiz Iso Masihning quli Yoqubdan* o‘zga yurtlarga
tarqalib ketgan o‘n ikki qabilaga* salom!

Sinov va vasvasalar

2 Ey birodarlarim, turli sinovlarga duchor bo‘lganingizda o‘zingizni baxtli deb
bilinglar. 3 Axir, imoningiz sinalganda, sizlar sabr–toqat qilishni o‘rganasizlar. Bu
o‘zingizga ham ayon. 4 Har qanday vaziyatda sabr qilishni o‘rganinglar, shunda yetuk,
bekamu ko‘st, komil inson bo‘lasizlar.

5 Agar birortangizga donolik yetishmasa, Xudodan so‘rang, U beradi. Chunki
so‘raganlarning hammasiga Xudo saxiylik bilan, beminnat beradi. 6 Shu bois umidingizni
faqatgina Xudoga bog‘lab, imon bilan so‘rang. Ikkilanmang, chunki Xudoga sidqidildan
ishonmagan kishi go‘yo dengiz to‘lqiniga o‘xshaydi, shamol qaysi tomonga essa, to‘lqin
o‘sha tomonga qarab yo‘naladi. 7 Bunday odam Egamizdan biror narsa olaman deb umid
qilmasin. 8 U Xudoga tayanmagani uchun hayotida beqaror, o‘zgaruvchan bo‘ladi.

9 Nochor ahvoldagi birodar Xudoning nazarida yuksak ekanligidan xursand bo‘lsin.
10 Boy birodar esa Xudoga muhtoj ekanligidan shodlansin. Chunki o‘z boyligiga tayangan
kishi dasht guliday xazon bo‘ladi. 11 Quyosh jazirama issig‘i bilan dashtning o‘t–
o‘lanlarini qovjiratib yuboradi. Gullarning go‘zalligi yo‘qolib, xazon bo‘ladi. Boylik
orqasidan quvib, davlatiga tayanganlar ham xuddi shu singari nobud bo‘lishadi.

12 Sinovlarga bardosh bergan odam baxtlidir. Chunki u sinovdan o‘tgach, hayot toji
bilan taqdirlanadi. Bunday tojni Xudo O‘zini sevganlarga va’da qilgan. 13 Vasvasaga

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

tushganingizda Xudoni ayblamang! Chunki Xudo hech qachon vasvasaga tushmaydi va
hech kimni vasvasaga solmaydi. 14 Lekin har kim o‘z ehtirosi dastidan vasvasaga duchor
bo‘lib, nafs tuzog‘iga ilinadi. 15 Keyin ehtiros homilador bo‘lib gunohni tug‘adi, gunoh esa
yetilib, o‘limga olib boradi.
16 Ey aziz birodarlarim, aldanmanglar! 17 Har bir yaxshi va mukammal hadya
samodan keladi. Bu hadyalarni osmondagi jamiki yoritqichlarni yaratgan Xudo* beradi.
Yoritqichlarning nuri paydo bo‘lib, g‘oyib bo‘ladi, Xudoning ezguligi esa yo‘qolmaydi.
Zero, Xudo hech qachon o‘zgarmaydi. 18 Xudo kelajakda butun borliqni yangilaydi. Biz
bu yangilanishning ilk hosili* bo‘lishimiz uchun, Xudo O‘z xohishiga ko‘ra, bizga haqiqat
kalomi orqali yangi hayot berdi.

Xudoning so‘zini eshitib, unga amal qilish haqida

19 Ey aziz birodarlarim, shuni esingizda tutinglar: har bir odam eshitishda chaqqon,
gapirishda vazmin, g‘azab kelganda bosiq bo‘lsin. 20 Chunki insoniy g‘azabingiz Xudoga
manzur bo‘lgan solih hayot kechirishingizga yo‘l qo‘ymaydi. 21 Shunday ekan, har
qanday jirkanch va yomon ishlarni bas qilinglar! Xudoning qalbingizga ekkan kalomini
kamtarlik bilan qabul qilinglar. Axir, bu kalom joningizni qutqarishga qodir.
22 Xudoning kalomiga rioya qilinglar! Kalomni eshitsam bas, deb o‘zingizni o‘zingiz
aldamanglar. 23 Kalomni tinglab, amalda rioya qilmagan odam o‘z yuzini ko‘zguda
ko‘rgan kishiga o‘xshaydi. 24 U o‘ziga qaradi–yu, ketdi va o‘sha zahoti o‘zining qanday
ekanligini unutib yubordi. 25 Sizlar esa Xudoning ozodlik beruvchi mukammal qonuniga*
doim sinchiklab qaranglar. Qonunni shunchaki eshitib, unutib yubormanglar, unga
qat’iy amal qilinglar. Bu ishingiz uchun Xudo sizga baraka beradi.
26 Agar siz o‘zingizni dindor hisoblab, tilingizni tiymasangiz, o‘zingizni o‘zingiz
aldagan bo‘lasiz va sizning bunday din–diyonatingiz befoydadir. 27 Otamiz Xudoning
nazarida pok va beg‘ubor din–diyonatga ega bo‘lgan inson yetim–yesiru bevalarni
qayg‘uli kunlarida yo‘qlab boradi, u bu dunyo dastidan bulg‘anmaydi.

2–BOB

Yuz–xotirchilik qilmanglar

1 Ey birodarlarim, ulug‘vor Rabbimiz Iso Masihga ishonar ekansiz, yuz–xotirchilik
qilmanglar. 2 Sizlarning yig‘ilishingizga oltin uzuk taqqan, bashang kiyingan bir boy
bilan ust–boshi juldur bir gadoy kirdi deb faraz qilaylik. 3 Agar sizlar bashang kiyinganga
qarab: “Marhamat qilib to‘rga chiqing”, gadoyga esa: “Sen ostonada tur” yoki “Shu yerda,
poygakda o‘tir”, desangiz, 4 sizlar bir odamni boshqasidan ustun qo‘ygan
bo‘lmaysizlarmi?! Bu bilan sizlar yomon niyatli qozilarga o‘xshab qolasizlar–ku!
5 Ey aziz birodarlarim, quloq solinglar: Xudo bu dunyodagi kambag‘allarni imonda
boy qilish uchun tanladi! U O‘zini sevganlarga va’da qilganday, ularga O‘z Shohligini
meros qilib berdi. 6 Ammo sizlar–chi, kambag‘alni beobro‘ qilib tashladingiz! Sizlarga
jabr–zulm qilgan boylar emasmi?! Sizlarni mahkamalarga sudrab olib borgan ular
emasmi?! 7 Sizlar Rabbimiz Isoga tegishlisizlar. Ammo bu boylar Rabbimizning ezgu
nomini haqorat qilyaptilar!
8 Agar sizlar Muqaddas bitiklardagi: “O‘zgani o‘zingizni sevganday seving”* degan
Xudoning Shohligiga oid qonunga amal qilayotgan bo‘lsangiz, to‘g‘ri qilayotgan
bo‘lasizlar. 9 Biroq yuz–xotirchilik qilayotgan bo‘lsangiz, gunoh qilyapsiz va qonunbuzar

sifatida hukm qilinasiz. 10 Kimki qonunning hammasiga rioya qilsa–yu, faqat bir narsada
gunoh qilsa, u butun qonunni buzgan hisoblanadi. 11 Chunki “Zino qilmang” degan Xudo
“Qotillik qilmang”* deb ham aytgan. Agar siz zino qilmasangiz–u, ammo odam
o‘ldirsangiz, qonunni buzgan bo‘lasiz.
12 Shuning uchun har bir gapingiz va ishingiz Xudoning ozodlik beruvchi qonuniga*
muvofiq bo‘lsin. Zero, Xudo har bir odamni o‘sha qonun bo‘yicha hukm qiladi. 13 U
shafqatsiz odamga rahm qilmaydi. Rahmdil inson esa hukm paytida Xudodan shafqat
topadi.

Imon va amal

14 Ey birodarlarim, agar biror kishi imonim bor, desa–yu, xayrli ishlar qilmasa, nima
foydasi bor?! Bunday imon uni qutqararmidi?! 15 Faraz qiling, imonli birodaringiz och–
yalang‘och bo‘lsa–yu, 16 siz unga: “Yaxshi bor! Isinib, qorningni to‘ydirib yur”, desangiz–
u, ehtiyojini qondirmasangiz, bundan nima foyda?! 17 Shunga o‘xshab quruq imonning
o‘zi amalsiz o‘likdir.
18 Kimdir:
— Ba’zilarning xayrli ishlari, boshqalarning esa imoni bor–ku, — deb noroziligini
bildirishi mumkin. Unday odamga men shunday javob bergan bo‘lardim:
— Kel, senga imonimni xayrli ishlarim orqali ko‘rsatay. Sen esa imoning
samimiyligini qaysi dalil bilan isbotlay olasan? Axir, sen xayrli ishlar qilmaysan–ku!
19 U odam:
— Men Xudoning yagonaligiga ishonaman! — deb aytishi aniq. Men esa unga:
— Ishonib, yaxshi qilasan! — deyman. — Ammo sening bu ishonching jinlarning
ishonchidan aslo farq qilmaydi. Zero, jinlar ham Xudoning yagonaligiga ishonib,
dahshatdan titraydi. 20 Ey ahmoq, amalsiz imoning foydasiz ekanligini nahotki
tushunmasang?! 21 Otamiz Ibrohim* o‘z o‘g‘li Is’hoqni qurbon qilmoqchi bo‘lgani uchun
Xudo uni solih deb bildi! 22 Ana, ko‘rdingmi?! Ibrohimning bu ishiga imon asos bo‘ldi.
Uning qilgan ishi imonining chinligini ko‘rsatdi. 23 Shu tariqa Tavrotdagi: “Ibrohim
Xudoga ishondi, Xudo uni ishonchi uchun, solih deb bildi”*, — deya yozilgan so‘z amalga
oshdi. Ibrohim Xudoning do‘sti deb ataldi*.
24 Ey birodarlarim, ko‘rdingizmi, inson quruq imoni uchun emas, balki qilgan ishlari
uchun solih deb tan olinadi.
25 Fohisha Rahoba* ham buning yana bir misolidir. Nima uchun Xudo uni solih deb
tan oldi? Rahoba Isroil xalqining ayg‘oqchilarini uyiga kirgizib, bexatar yo‘l bilan qochib
ketishlariga yordam bergani uchun Xudo uni solih deb bildi.
26 Xullas, amalsiz imon jonsiz tanaday o‘likdir.

3–BOB

Tilni tiymoq haqida

1 Ey birodarlarim, hammangiz ham ustoz bo‘lavermanglar! Biz, ustozlar, jiddiyroq
hukmga duchor bo‘lishimiz o‘zingizga ma’lum. 2 Odamlarning hammasi ko‘p xato qiladi.
So‘zlayotganda xato qilmagan inson yetukdir. U butun vujudini jilovlay oladi. 3 Biz
otlarni itoat ettirish uchun og‘izlariga suvluq solamiz. Shu orqali ularning butun tanasini
boshqaramiz. 4 Mana, kemalar ham, qancha ulkan bo‘lmasin va kuchli shamollar
yordamida yurmasin, kichkina bir rul bilan boshqariladi. Kemachi rul yordamida

kemani istagan joyga yo‘naltiradi. 5 Til ham xuddi shundaydir, til badanning kichkina bir uzvidir, ammo katta muammolarni keltirib chiqaradi.

Qara, kichkina bir olov bepoyon o‘rmonni yondirib yuboradi! 6 Til ham olovga o‘xshaydi. Til — uzvlarimiz orasida bir buzg‘unchi dunyo! U butun vujudimizni bulg‘aydi. U do‘zaxdan alangalanib, butun hayotimizni yondiradi.

7 Turli xil yovvoyi hayvonlar bilan qushlar, sudraluvchi va dengiz hayvonlari inson zoti tomonidan boshqarilgan va boshqarilmoqda. 8 Ammo tilni hech bir inson boshqara olmaydi. Tinib–tinchimas bu yovuz til zahri qotildir. 9 Biz tilimiz bilan samoviy Otamiz bo‘lgan Egamizni olqishlaymiz va tilimiz bilan Xudoning suratida yaratilgan insonlarni la’natlaymiz. 10 Olqish va la’nat bir og‘izdan chiqadi. Ey birodarlarim, bunday bo‘lmasligi kerak! 11 Axir, bitta buloqdan ham shirin, ham achchiq suv oqib chiqmaydi–ku! 12 Ey birodarlarim, anjir daraxti zaytun mevasini beradimi?! Yoki tok novdasi anjir tugadimi?! Yo‘q! Sho‘r buloqdan ham shirin suv oqib chiqmaydi!

Kim dono?

13 Dono va farosatlimisiz? Buni ibratli hayotingiz orqali namoyon qiling. Har bir ishni kamtarlik va donolik bilan bajaring. 14 Bordi–yu, yuragingizda achchiq hasad va xudbinlik bo‘lsa, donoman, deb maqtanmang. O‘zingizni shunday tutayotgan bo‘lsangiz, haqiqatni rad etgan bo‘lasiz. 15 Dunyoga va moddiyatga xos bo‘lgan bunday “donolik” Xudodan emas, shaytondandir. 16 Chunki hasadgo‘ylik va xudbinlik bor joyda janjal va yovuzlik hukm suradi.

17 Xudodan kelgan donolik esa, avvalo pokdir. Shuningdek, bu asl donolik tinchliksevar, muloyim, haqiqatga bo‘ysunadigan, mehr–shafqatli, xayrli ishlarga boy, tarafkashlik qilmaydigan, o‘ta samimiydir. 18 Tinchlik o‘rnatuvchilar tinchlikni ekib, solihlikni o‘rib oladilar.

4–BOB

Dunyo bilan do‘st bo‘lgan kishi Xudoga dushmandir

1 Orangizdagi urush va janjallar qayerdan kelib chiqadi? Ichingizda jang qilayotgan nafsu ehtiroslaringizdan emasmi?! 2 Sizlar o‘zingizda yo‘q narsani xohlaysizlar, o‘shanga erishish uchun odam o‘ldirishdan ham toymaysizlar. Hasad qilyapsizlar, ammo maqsadingizga erisha olmagach, janjallashib urushyapsizlar. Sizlarda xohlagan narsangiz yo‘q, chunki uni Xudodan so‘ramaysizlar. 3 So‘ragan taqdirda ham, olmayapsizlar, chunki yomon niyat bilan, nafsingizni qondirish uchun so‘rayapsizlar.

4 Ey sadoqatsiz bandalar! Dunyo bilan do‘stlik Xudoga dushmanlik ekanligini nahotki bilmasangizlar?! Kim dunyo bilan do‘st bo‘lishni istasa, Xudoga dushman bo‘ladi.
5 Muqaddas bitiklarda: “Xudo ichimizga solgan ruhni g‘oyatda qizg‘anadi, U bizdan sadoqatni talab qiladi”, deb ta’lim beriladi–ku! Nima, sizlar bularni bekor deb o‘ylaysizlarmi?! 6 To‘g‘ri, Xudo bizdan sadoqatni talab qiladi, ammo shu bilan birga U bizga nisbatan nihoyatda inoyatlidir. Zero, Muqaddas bitiklarda yozilgan:

> “Xudo mag‘rurlarga qarshi chiqadi,
> Kamtarlarga esa inoyat ko‘rsatadi.”*

7 Shunday ekan, Xudoga bo‘ysuninglar! Iblisga qarshilik ko‘rsatinglar, shunda u

sizlardan qochadi. 8 Xudoga yaqinlashinglar, shunda U sizlarga yaqinlashadi. Ey
gunohkorlar, qo‘llaringizni gunohdan tozalanglar! Bir vaqtning o‘zida ham Xudoga, ham
dunyoga ko‘ngil bog‘laganlar, qalbingizni poklanglar! 9 Qilgan gunohingiz uchun
qayg‘uringlar, motam tutinglar, yig‘langlar! Kulgingiz motamga, shodligingiz g‘am–
g‘ussaga aylansin. 10 Egamiz oldida o‘zingizni past tutinglar, shunda U sizlarni
yuksaltiradi.

Birodarlarni hukm qilmanglar

11 Ey birodarlarim, bir–biringizni yomonlamanglar. Agar birodaringizni yomonlab,
hukm qilsangiz, demak, mehr–oqibatni o‘rgatadigan Xudoning qonunini yomonlab,
hukm qilgan bo‘lasizlar. Xudoning qonunini hukm qilgan odam esa, qonun bajarishdan
bosh tortib, o‘zini qonundan ustun qo‘ygan qoziday bo‘ladi. 12 Ammo faqatgina Xudo
qonun chiqarib, hukm qila oladi. Faqat U qutqarish va nobud qilish qudratiga ega. Sen
esa kim bo‘libsanki, birodaringni hukm qilasan?!

Xudoga tayanmay o‘z kuchiga tayanganlarni ogohlantirish

13 Hoy, qilmoqchi bo‘lgan ishlari bilan maqtanadiganlar, menga quloq solinglar!
Sizlar: “Bugun yoki ertaga falon shaharga borib, u yerda bir yil yashaymiz. Savdo–sotiq
qilib, pul ishlab kelamiz”, deysizlar. 14 Ertaga nima bo‘lishini sizlar qayerdan bilasizlar?!
Umringiz bir lahza ko‘zga ko‘rinib, keyin g‘oyib bo‘ladigan tutunga o‘xshaydi–ku!
15 Buning o‘rniga sizlar: “Egamiz xohlasa, sog‘–salomat bo‘lsak, uni yoki buni qilamiz”,
deb aytishingiz kerak. 16 Sizlar esa aksini qilib, mag‘rurlanib, maqtanyapsizlar. Bu kabi
maqtanish yomondir. 17 Demak, qilishingiz kerak bo‘lgan yaxshi ishni bila turib,
qilmasangiz gunoh bo‘ladi.

5–BOB

Boylarni ogohlantirish

1 Menga qaranglar, ey boylar, boshingizga tushadigan falokatlar uchun ho‘ngrab
yig‘langlar! 2 Boyligingiz chirib ketgan, kiyimingizni kuya yegan. 3 Oltinu
kumushlaringizni zang bosgan. Bu zang sizga qarshi guvoh bo‘ladi, u tufayli tanangiz
Xudoning qahri olovida yonadi. Oxirzamon kelib qoldi, sizlar esa boylik to‘plash bilan
ovorasizlar. 4 Sizlar ekinlaringizni o‘rgan o‘roqchilarni aldab, ish haqini bermadingizlar.
Ana, o‘sha pullar sizlardan norozi bo‘lib, nola qilmoqda! O‘roqchilarning dod–fig‘oni
Sarvari Olamning qulog‘iga yetib bordi. 5-6 Sizlar qarshilik ko‘rsata olmagan aybsiz
odamlarni qoralab, qatl qildingizlar. Bu dunyoda maishatga berilib, huzur–halovatda
yashadingizlar. Bo‘rdoqilarday semirib ketdingiz! Mana endi hukm kunida so‘yilishga
tayyor bo‘lib qoldingiz!

Sabr–toqatli bo‘linglar

7 Ey birodarlarim, Rabbimiz Iso keladigan kunga qadar sabr–toqat qilinglar! Axir,
dehqon ham dalasi mo‘l hosil yetishtirishini kutadi. U kuzgi va bahorgi yomg‘irni poylab,
qancha sabr–toqat qiladi! 8 Sizlar ham sabr qilinglar. Dadil bo‘linglar, chunki
Rabbimizning keladigan kuni yaqinlashib qoldi. 9 Birodarlarim, mahkum bo‘lmasligingiz
uchun bir–biringizdan shikoyat qilmanglar. Mana, hukm qiluvchi Rabbimiz Iso ostonada
turibdi!

10 Ey birodarlarim, payg‘ambarlardan o‘rnak olinglar! Ular Egamizning nomidan

gapirib, azob–uqubatlarga dosh berganlar. 11 Darhaqiqat, sabr qilgan bunday odamlarni
biz baxtli deb hisoblaymiz. Ayubning* sabr–toqati haqida eshitgansizlar, oxirida Egamiz
unga qanchalar baraka berganini bilasizlar. Ha, Egamiz rahmdil va mehr–shafqatlidir.
12 Ey birodarlarim, eng avvalo, qasamxo‘r bo‘lmanglar! Lafzi yo‘q inson kabi, bo‘lar–
bo‘lmasga osmon haqi, yer haqi va boshqa narsa haqi, deb qasam ichavermanglar.
Javobingiz “ha” yoki “yo‘q” bo‘lsin. Shunda Xudo sizlarni hukm qilmaydi.

Bir–biringiz uchun ibodat qilinglar

13 Orangizda azob–uqubat chekayotgan bironta odam bormi? Agar bo‘lsa, ibodat
qilsin. Xursand bo‘lgani bormi? Xudoga hamdu sanolar kuylasin. 14 Orangizda kasal
bo‘lgan bormi? Jamoat oqsoqollarini chaqirtirsin. Ular ibodat qilib, Rabbimiz Iso nomi
bilan bemorning boshiga zaytun moyini surtsinlar*. 15 Imon bilan qilingan ibodat
bemorni sog‘aytiradi, Rabbimizning O‘zi unga shifo beradi. Agar bemor gunoh qilgan
bo‘lsa, Rabbimiz uni kechiradi. 16 Shuning uchun qilgan gunohlaringizni bir–biringiz
oldida tan olinglar, bir–biringiz uchun ibodat qilinglar, shifo topasizlar. Solih odamning
iltijosi kuchli ta’sirga egadir! 17 Ilyos* ham bizga o‘xshagan oddiy bir inson edi. Yomg‘ir
yog‘masin, deb u astoydil iltijo qildi va yer yuziga uch yilu olti oy yomg‘ir yog‘madi.
18 So‘ng u yomg‘ir yog‘sin, deb ibodat qildi, osmondan yomg‘ir yog‘ib, yer hosil berdi.
19 Ey birodarlarim, agar orangizdagi biror kishi haq yo‘ldan ozgan bo‘lsa, uni to‘g‘ri
yo‘lga soling. 20 Esingizda bo‘lsin, gunohkorni nohaq yo‘ldan qaytargan odam o‘sha
gunohkorning najot topishiga va behisob gunohlarining yuvilishiga sababchi bo‘ladi.

IZOHLAR

…Yoqub Unga ishonmagan edi…Yoqub Unga ishonib… — Yuhanno 7:2-5, Havoriylar 1:14 ga qarang.

1:1 *Yoqub* — Isoning ukasi, u Quddusdagi jamoatning yetakchisi bo‘lgan (Mark 6:3, Havoriylar 15:13, 21:18, Galatiyaliklar 1:18-19 ga qarang).

1:1 *o‘zga yurtlarga tarqalib ketgan o‘n ikki qabila* — Iso Masihga imon keltirgan va Quddusdan uzoq joylarda yashaydigan yahudiylar nazarda tutilgan. Bu imonlilar quvg‘inlar oqibatida tarqalib ketgan bo‘lishlari mumkin (Havoriylar 8:1, 11:19 ga qarang).

1:17 *osmondagi jamiki yoritqichlarni yaratgan Xudo* — yunoncha matnda *osmondagi jamiki yoritqichlarning otasi*. Bu o‘rinda otasi so‘zi ularning manbai yoki yaratuvchisi degan ma’noni bildiradi.

1:18 *ilk hosil* — birinchi pishgan ilk hosil o‘sha yili yig‘ishtiriladigan yalpi hosilning mo‘l bo‘lishidan dalolat beradi. Xuddi shu singari, Masih orqali yangi hayotga erishgan masihiylar ham ilk hosilday, Xudo butun borliqni yangilashidan dalolat beradi (2 Butrus 3:13, Rimliklar 8:19-21, Vahiy 21:1-5 ga qarang).

1:25 *Xudoning ozodlik beruvchi mukammal qonuni* — Iso Masih o‘rgatgan va O‘z hayotida namunali ravishda bajargan Xudoning qonuniga ishora (2:8 ga va Matto 5:17, 43-48, 22:36-40, Luqo 10:25-37, Yuhanno 8:31-36, Galatiyaliklar 5:13-14, 6:2, 1 Korinfliklar 9:21 ga qarang).

2:8 Levilar 19:18 ga qarang.

2:11 Chiqish 20:13-14 ga qarang.

2:12 *Xudoning ozodlik beruvchi qonuni* — 1:25 izohiga qarang.

2:21 *Ibrohim* — Ibtido 22:1-18 ga qarang.

2:23 Ibtido 15:6 ga qarang.

2:23 *Ibrohim Xudoning do‘sti deb ataldi* — 2 Solnomalar 20:7, Ishayo 41:8 ga qarang.

2:25 *Rahoba* — Yoshua 2:1-21, 6:23-24 ga qarang.

4:6 Muallif bu o‘rinda Hikmatlar 3:34 ning qadimiy yunoncha tarjimasidan foydalangan.

5:11 *Ayub* — Ayub 2:10, 42:10-16 ga qarang.

5:14 *…bemorning boshiga zaytun moyini surtsinlar* — zaytun moyi qadimgi paytlarda malham sifatida ishlatilardi. U og‘riq qoldirib, terini qurib ketishdan saqlar edi (Ishayo 1:6, Luqo 10:34 ga qarang). Bu o‘rinda moy Xudoning shifo berish qudrati ramzi sifatida kasal odamga surtilgan bo‘lishi mumkin.

5:17 *Ilyos* — 3 Shohlar 17:1, 18:1, 41-45 ga qarang.

BUTRUSNING

BIRINCHI MAKTUBI

Kirish

Mazkur maktub muallifi Iso Masihning shogirdi havoriy Butrusdir. Butrus ushbu maktubini Rim imperiyasiga qarashli to‘rtta viloyatda* yashagan, jamiyat tomonidan ayovsiz ta’qib qilingan masihiylarga yozgan. Birinchi asrda masihiy bo‘lish degani, albatta, quvg‘inlarga duchor bo‘lib, har xil azoblarga bardosh berib yashash degani edi.

Muallif o‘z maktubida o‘sha imonlilarga dalda va tasalli beradi. Quvg‘inlarga qaramay, ularni imonda sobit turishga undaydi. U Xudoning mehribonligi haqida so‘z yuritadi. Iso Masihning o‘limi va tirilishi tufayli masihiylar bebaho umidga sazovor bo‘lganlari haqida bayon qiladi. So‘ng ular jamiyatda o‘zlarini qanday tutishlari kerakligini aytadi, Rabbimiz haqi davlat rahbariga va boshliqlarga bo‘ysunish kerakligini ularga uqtiradi. Muallif imonlilarning butun e’tiborini Masihga qaratadi, Uning boshdan kechirgan azoblari haqida so‘z yuritar ekan, imonlilarni Masihdan ibrat olishga, yomonlikka yomonlik qaytarmay, hammani duo qilishga chaqiradi.

1–BOB

Duoyi salom

1 Iso Masihning havoriysi men — Butrusdan Xudoning tanlangan xalqiga salom! Ey
Xudoning aziz xalqi, sizlar bu dunyoda musofir bo‘lib yashayapsizlar, Pontus, Galatiya,
Kappadokiya, Asiya va Bitiniya viloyatlariga* tarqalib ketgansizlar, 2 ammo Otamiz Xudo
azalda qaror qilib, sizlarni tanlagan edi. Sizlar Iso Masihga itoat etishingiz va Uning
to‘kilgan qoni* orqali poklanishingiz uchun Xudo qudratli Ruhi bilan sizlarni O‘ziga
ajratib oldi.

Xudoning cheksiz inoyati va tinchligi sizlarga yor bo‘lsin.

Masihdagi umidimiz

3 Rabbimiz Iso Masihning Otasi Xudoga hamdu sanolar bo‘lsin! U bizga behad rahm–
shafqat ko‘rsatib, yangi hayot berdi. Iso Masih o‘likdan tirilib, barhayot bo‘lgani uchun
endi bizning umidimiz bor. 4 Shu bois Xudo O‘z xalqiga atagan qut–barakaga biz ko‘z
tikkanmiz. Ha, samoda saqlanayotgan bu abadiy, so‘lmas, beg‘ubor baraka sizlarni
kutmoqda. 5 Oxirzamonda oshkora bo‘ladigan najotdan bahramand bo‘lishingiz uchun
Xudo O‘z qudrati bilan sizlarni omon saqlaydi. Imoningiz tufayli U sizlarni qo‘riqlaydi.
6 Shuning uchun xursand bo‘linglar! Sizlar turli sinovlar tufayli vaqtincha
qiynalyapsizlar, shunday bo‘lsa ham quvoninglar. 7 Chunki sinovlar imoningizning
samimiy ekanligini isbotlash uchun kerakdir. Hatto yo‘q bo‘lib ketadigan oltin ham
olovda toblanib, sinaladi. Sizning imoningiz esa oltindan ming barobar qadrliroqdir. Iso
Masih oxiratda kelganda sinovdan o‘tgan imoningiz sizlarga maqtov va shon–sharaf
keltiradi. 8 Sizlar Masihni ko‘rmagan bo‘lsangiz ham, Uni yaxshi ko‘rasizlar. Hozir ham
Masihni ko‘rmay turib, Unga ishonyapsizlar, qalbingiz so‘z bilan ifodalab bo‘lmaydigan
ajoyib bir quvonchga to‘la. 9 Axir, imoningiz tufayli jonlaringiz najot topadi.

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

10 Payg‘ambarlar izlanib, bu najotni chuqur o‘rganganlar. Sizlarga beriladigan
Xudoning inoyati haqida karomat qilganlar. 11 Ularning qalblarida Masihning Ruhi bor
edi. Bu Ruh ularga Masihning chekadigan azob–uqubatlari va azoblar ketidan keladigan
ulug‘vorligi haqida oldindan ma’lum qilgan edi. Bu voqealar qachon va qay tarzda yuz
berishini payg‘ambarlar bilmoqchi bo‘lar edilar. 12 Aslida ularning bu izlanishlari o‘z
manfaati uchun emas, balki sizlarning manfaatingiz uchun qilinganini Xudo ularga ayon
etdi. Payg‘ambarlar e’lon qilgan najot haqidagi Xushxabar sizning davringizda amalga
oshdi. Bu Xushxabarni sizlarga osmondan yuborilgan Muqaddas Ruhning qudratiga
to‘lgan odamlar bayon etishdi. Hatto farishtalar ham bu najotning qay tarzda amalga
oshishini intizorlik bilan kutayotgan edilar.

Xudoga manzur hayot kechiringlar

13 Xullas, es–hushingizni yig‘ib olinglar, hushyor bo‘linglar. Butun umidingizni
Xudoning inoyatiga bog‘langlar. Axir, Iso Masih oxiratda kelganda Xudo sizlarga inoyat
ko‘rsatib, najot beradi. 14 Xudoga itoatkor farzandlar bo‘linglar, oldingi g‘aflat paytida
sizlarni qamragan ehtiroslarga qul bo‘lib qolmanglar. 15 Aksincha, butun yurish–
turishingizda muqaddas bo‘linglar, zero, sizlarni da’vat etgan Xudo muqaddasdir. 16 Axir,
Xudoning O‘zi: “Muqaddas bo‘linglar, chunki Men muqaddasman”*, deb aytgan.
17 Sizlar Xudoga iltijo qilib, Uni Ota deb ataysizlar. Ammo esingizda tutinglar, Xudo
yuz–xotirchilik qilmaydi, U har bir kishini qilgan ishiga yarasha taqdirlaydi yoki
jazolaydi. Shunday ekan, bu dunyodagi musofirchilik davringizda Xudodan qo‘rqib
yashanglar. 18-19 Zotan, sizlar ota–bobolaringizdan o‘rgangan bema’ni turmush
tarzingizdan kumush yoki oltinga o‘xshash o‘tkinchi narsalar evaziga emas, balki
Masihning qimmatbaho qoni evaziga qutulgansizlar. Axir, Masih Xudoning benuqson
qurbonlik Qo‘zisidir. 20 Xudo Masihni dunyo yaratilishidan oldin bu xizmat uchun
tayinladi. Endi shu oxirgi kunlarda esa Uni sizlar uchun zohir qildi. 21 Sizlar Masih orqali
Xudoga ishonasizlar. Xudo Masihni tiriltirib, ulug‘vorlikka erishtirgani uchun ham sizlar
imoningizda sobit turibsiz, chin qalbdan Xudoga umid bog‘lagansiz.
22 Sizlar haqiqatga bo‘ysunib*, gunohdan poklanganingiz uchun birodarlarga
samimiy mehr qo‘ya olasizlar. Shunday ekan, bir–biringizni chin yurakdan, ixlos bilan
yaxshi ko‘ringlar. 23 Axir, sizlar yangidan tug‘ilgansizlar. Bu yangi hayotni sizga foniy
bandalar emas, balki abadiy va hayotbaxsh Xudoning kalomi ato etgan. 24 Muqaddas
bitiklarda shunday yozilgan:

> “Inson zotining hammasi maysaday,
> Ularning shuhrati dala guli kabidir.
> O‘tlar quriydi, gullar so‘lib qoladi.
> 25 Egamizning kalomi esa abadiy turadi.”*

Ana shu kalom sizlarga e’lon qilingan Xushxabardir.

2–BOB

Xudoning kalomiga intilinglar

1 Endi har qanday yomon niyat, hiyla–nayrang, ikkiyuzlamachilik, rashk–hasad va
g‘iybatni o‘zingizdan soqit qilinglar. 2 Yangi tug‘ilgan chaqaloq sof ona sutini tusaganday,

sizlar ham Xudo kalomiga tashna bo‘linglar. Kalom bilan oziqlanib, ulg‘ayib, najotga erishinglar. 3 Axir, sizlar Rabbimiz Isoning muruvvatidan bahramand bo‘ldingizlar.

Xudoning ma’badi uchun tirik toshlar

4 Insonlar rad etgan, lekin Xudo qimmatbaho deb tanlagan tirik toshga — Rabbimiz Isoga yaqinlashinglar. 5 Shunda o‘zlaringiz ham tirik toshlarday bo‘lasizlar. Xudo sizlardan ruhiy ma’bad barpo etadi. Sizlar muqaddas ruhoniylar bo‘lib xizmat qilasizlar va Iso Masih orqali Xudoga maqbul ruhiy qurbonliklar keltirasizlar. 6 Zero, Muqaddas bitiklarda Xudo shunday degan:

> “Mana, Men joylashtiryapman Quddusda*
> Tanlangan, qimmatbaho tamal toshini*.
> Unga tayangan hech bir inson uyatga qolmaydi.”*

7 Sizlar — Masihga ishonganlar uchun bu tosh qimmatbahodir. Ammo ishonmaganlarga Muqaddas bitiklardagi shu so‘zlar* to‘g‘ri keladi:

> “Binokorlar rad etgan tosh
> Binoning tamal toshi bo‘ldi.
> Ba’zilar bu toshga qoqinadi,
> Uning dastidan yiqiladi.”

8 Imonsizlar Xushxabarni rad etib, itoatsizlik qilganlari uchun qoqinadilar. Ular ana shu qismatga mahkum bo‘lganlar.

9 Ammo sizlar — tanlangan bir nasl, ruhoniylar shohligi, muqaddas qavm*, Xudoning aziz xalqisiz. Xudo sizlarni zulmatdan O‘zining ajoyib nuriga da’vat etgan, Uning buyuk ishlarini e’lon qilishingiz uchun sizlarni tanlagan. 10 Sizlar bir vaqtlar Xudoga begona edingizlar, endi esa Uning xalqisizlar. Bir vaqtlar Xudoning marhamatidan bebahra edingizlar, endi esa Undan marhamat topdingizlar*.

Jamiyatda Xudoga munosib hayot kechiringlar

11 Ey azizlarim, sizlardan o‘tinib so‘rayman, jonga qarshi kurashadigan nafs ehtiroslaridan saqlaninglar. Axir, sizlar bu dunyoda g‘aribu musofirsizlar. 12 Imonsizlar orasida Xudoga munosib hayot kechiringlar. Ular sizlarni yomonlikda ayblasalar–da, ezgu ishlaringizni ko‘rib, kim bilsin, balki tavba qilishar va qiyomat kuni Xudoni ulug‘lashar.

13 Insonlar tomonidan o‘rnatilgan har qanday hokimiyatga, Egamiz haqi–hurmati, bo‘ysuninglar. Oliy hokim bo‘lgan shohga* ham, 14 u tayinlagan hokimlarga ham itoat qilinglar. Zero, hokimlar yomonlik qilganlarni jazolash uchun, yaxshilik qilganlarni esa taqdirlash uchun tayinlangan. 15 Siz haqiqatni bilmagan nodon odamlarning og‘izlarini qilgan yaxshiligingiz bilan yopinglar, chunki bu Xudoning xohishidir. 16 Ozod odamlardek yashanglar, ammo ozodlik niqobi ostida yomonlik qilmanglar. Xudoning qullariday hayot kechiringlar. 17 Hamma odamlarni hurmat qilinglar. Imonli birodarlaringizni yaxshi ko‘ringlar. Xudodan qo‘rqinglar, davlat rahbariga izzat–ehtirom ko‘rsatinglar.

18 Ey qullar, Xudodan qo‘rqqaningiz uchun* xo‘jayinlarga itoat qilinglar. Nafaqat mehribon va muloyimlarga, balki qattiqqo‘l xo‘jayinlarga ham bo‘ysuninglar. 19 Agar

sizlar Xudoni mamnun qilmoqchi bo‘lib, to‘g‘ri ish qilsangiz–u, nohaq azoblarga chidasangiz, Xudoni rozi qilgan bo‘lasiz. 20 Bordi–yu, qilgan gunohingiz uchun tayoq yeb chidasangiz, bu sizga sharaf keltirarmidi?! Ammo yaxshilik qilib turib, nohaq azoblarga chidasangiz, Xudoning maqtoviga sazovor bo‘lasiz.

Masihdan ibrat olinglar

21 Hatto azob chekkaningizda ham Xudo sizlarni yaxshilik qilishga da’vat etgan. Masih sizlar uchun azob chekib, namuna bo‘ldi. Unga taqlid qilinglar. 22 Axir, U hech qanday gunoh qilmagan, og‘zidan biron yolg‘on so‘z chiqmagan*. 23 U haqorat qilinganda hech kimga haqorat bilan javob qaytarmadi, azob chekkanda hech kimga tahdid qilmadi. Faqat odilona hukm qiladigan Xudoga O‘zini topshirdi. 24 U gunohlarimizni O‘ziga oldi, a’zoi badani yog‘ochda* azob chekdi. Shu tufayli biz gunoh uchun o‘lganmiz va solih hayot kechira olamiz. Uning yaralaridan biz shifo topdik. 25 Ilgari sizlar adashib yurgan cho‘ponsiz qo‘ylarga o‘xshar edingizlar, endi esa jonlaringizning posboni bo‘lgan Cho‘ponga* qaytib keldingizlar.

3–BOB

Er–xotinlik munosabatlari

1-2 Egamiz haqi–hurmati, siz, xotinlar, o‘z erlaringizga bo‘ysuninglar. Erlaringiz Xushxabarni rad etishsa ham, ularga itoat etinglar. Sizning ibratli xulq–atvoringiz har qanday so‘zdan ko‘ra, ta’sirliroq bo‘ladi. Erlaringiz pokiza hayotingizni va Xudodan qo‘rqib yashayotganingizni ko‘rib, imonga kelishadi. 3 Sizning jozibangiz o‘rilgan sochlar, oltin taqinchoqlar, chiroyli kiyimlar kabi tashqi zeb–ziynatdan iborat bo‘lmasin. 4 Ammo qalbingizdagi yuvosh va sokin ruh sizlarning so‘lmaydigan ichki go‘zalligingiz bo‘lsin. Xudoning nazarida bunday go‘zallikning qadri yuksakdir. 5 O‘tmishda Xudoga umid bog‘lagan muqaddas xotinlar ham o‘zlari shu yo‘sinda bezanib, erlariga bo‘ysunar edilar. 6 Masalan, Sora* ham Ibrohimga itoat etib, uni xo‘jayin deb atar edi. Agar sizlar yaxshilik qilib, har qanday qo‘rquvdan sarosimaga tushmasangiz, Soraning qizlari hisoblanasizlar.

7 Ey erlar, sizlar ham, Egamiz haqi–hurmati, xotinlaringizga e’tiborli bo‘linglar, ular zaif jinsdan ekanligini hisobga olinglar. Ular ham abadiy hayot inoyatidan bahramand bo‘lganlari uchun ularni hurmat qilinglar. Aks holda, ibodatlaringiz ijobat bo‘lmaydi.

Haqiqat yo‘lida azob chekish haqida

8 Xullas, o‘zaro hamfikr, hamdard bo‘linglar, bir–biringizni birodarlarcha yaxshi ko‘ringlar, mehr–shafqatli va kamtar bo‘linglar. 9 Yomonlikka yomonlik, haqoratga haqorat bilan javob qaytarmanglar, aksincha, hammani duo qilinglar. Zero, Xudo sizlarni shunga da’vat etgan. Bularga rioya qilsangiz, baraka topasizlar. 10 Axir, Muqaddas bitiklarda shunday yozilgan:

> “Kimki hayotdan zavqlanishni,
> Baxtli umr ko‘rishni istasa,
> U tilini yomon so‘zdan tiysin,
> Og‘zini yolg‘on gapdan asrasin.
> 11 Yomonlikdan qaytib, yaxshilik qilsin.

Tinchlik istab, tinchlik payida bo‘lsin.
12 Chunki Egamiz solihlarni kuzatib turadi,
Ularning iltijosini Egamiz eshitadi.
Badkirdorlardan esa yuz o‘giradi*.”*

13 Agar yaxshilik qilishga bel bog‘lasangiz, kim ham sizlarga ozor bera olardi?!
14 Hatto to‘g‘ri ish uchun azob chekayotgan bo‘lsangiz ham, baxtiyorsizlar! Do‘q–po‘pisa qiluvchilardan qo‘rqmanglar, hayajonga tushmanglar. 15 Qo‘rquvga tobe bo‘lmanglar, balki butun qalbingiz bilan Rabbimiz Iso Masihning* hokimiyatiga bo‘ysuninglar. Masihga bo‘lgan umidingiz haqida sizdan so‘ragan har bir kishiga javob berishga doimo tayyor turinglar. Lekin buni muloyimlik va hurmat bilan bajo qilinglar. 16 Vijdoningiz toza bo‘lsin, toki Masih yo‘lidagi ibratli hayotingizni yomonlaganlar o‘z gaplaridan uyalib qolsinlar.
17 Agar yaxshilik qilib azob chekishingizni Xudo lozim ko‘rsa, har holda yomonlik qilib azob chekishdan bu afzalroqdir.

Masih yovuzlik ustidan g‘alaba qozondi

18 Masih bizni gunohlarimizdan to abad forig‘ qilish uchun azob chekkanini yodingizda tutinglar. U solih bo‘la turib, biz, gunohkorlarni Xudoga yaqinlashtirish uchun jonini fido qildi. Uni jisman o‘ldirishdi, ammo U yangi, ulug‘vor hayot uchun tirildi*. 19 So‘ng zindonga qamalgan yovuz ruhlar* oldiga borib, ular ustidan g‘alaba qilganini e’lon etdi. 20 Qadim zamonda bu ruhlar Xudoga itoatsizlik qilib, insoniyatni yo‘ldan ozdirgandi. Ammo Xudo sabr qildi. Nuh* o‘z kemasini qurib bo‘lguncha Xudo insoniyatni hukm qilmay, kutib turdi. O‘sha kemaga faqat sakkiztagina odam kirib, to‘fon suvlaridan omon qolgandi. 21 Nuh va uning oilasi bilan ro‘y bergan bu hodisa biz uchun timsol hisoblanadi. Bu timsol bizning imonga kelishimizni va suvga cho‘mdirilishimizni bildiradi. Cho‘mdirilish marosimi badanni kirdan tozalash emas, balki Xudoga: “Senga sodiq qolaman”, deb chin yurakdan va’da berish demakdir. Darhaqiqat, sizlar suvga cho‘mdirilganingizda, Iso Masihning tirilishi tufayli najot topdingizlar. 22 Masih osmonga ko‘tarilib, Xudoning o‘ng tomonida o‘tiribdi*. Koinotdagi har bir farishta, har qanday kuchlaru hukmronlar Masihga tobedir.

4–BOB

Xudo yo‘lida yashash

1 Masih bu dunyoda azob chekkani kabi, sizlar ham azob chekishga tayyor turinglar. Zotan, azob chekishga rozi bo‘lgan kishi gunohdan yuz o‘girgan bo‘ladi. 2 Bunday odam qolgan umrini nafsini qondirishga emas, Xudoning irodasini bajarishga bag‘ishlaydi.
3 Sizlar o‘tmishda xudosizlarday yashaganingiz yetar. O‘sha vaqtlarda axloqsizlik, shahvatparastlik, mayxo‘rlik, aysh–ishrat, kayf–safo, razil butparastlik bilan kun kechirardingizlar. 4 Endi esa atrofdagilar sizlarni ko‘rib, hayron bo‘lyaptilar. Ularning yaramas qilmishlariga qo‘shilmaganingiz uchun sizlarni haqorat qilyaptilar. 5 Ammo ular o‘z qilmishlari uchun Xudo oldida javob beradilar. Xudo tirigu o‘liklarni hukm etishga tayyor turibdi. 6 Xushxabar nima sababdan e’lon qilinganini esingizda tutinglar. To‘g‘ri, Xushxabarni eshitgan ko‘p odamlar olamdan ko‘z yumdi, chunki o‘lim bu dunyoga gunoh natijasida kirib keldi. Ular ham, boshqa insonlar kabi, jisman o‘limga

mubtalo bo‘lishdi. Biroq bir kun kelib, Xudo ularga ulug‘vor, yangi hayot ato qiladi*.
7 Oxirzamon yaqinlashib qoldi. Aqlingizni yig‘ib, doim hushyorlik bilan ibodat
qilinglar. 8 Avvalambor, bir–biringizni chin yurakdan yaxshi ko‘ringlar. Chunki sevgi
ko‘p gunohlarni yuvadi. 9 Nolimay, ochiq chehra bilan bir–biringizni mehmon qilinglar.
10 Xudo sizlarga bergan in’omlar bilan bir–biringizga xizmat qilinglar. Xudoning bu boy
ehsonlaridan oqilona foydalaninglar. 11 Va’zxonmisiz? Shunday va’z qilingki, go‘yo siz
orqali Xudoning O‘zi gapirganday bo‘lsin. Xizmatchimisiz? Xudoning bergan kuchiga
muvofiq xizmat qiling. Toki Iso Masih orqali Xudo har bir ishingizda va har bir
so‘zingizda ulug‘lansin. Qudratli Xudoga abadulabad shon–sharaflar bo‘lsin. Omin.

Masih uchun azob chekish

12 Ey azizlarim, xuddi g‘ayritabiiy hodisa yuz berganday, boshingizga tushgan og‘ir
sinovlardan hayron bo‘lmanglar. 13 Aksincha, Masihning azoblariga sherik
bo‘lganingizdan xursand bo‘linglar! Shunday qilsangiz, U oxiratda ulug‘vorlikka
burkanib kelganda, qalbingiz yanada ko‘proq quvonchga to‘ladi. 14 Agar sizlarni Masihga
tegishli bo‘lganingiz uchun haqorat qilishsa, baxtlisizlar! Axir, Xudoning Ruhi sizlarga
madad beradi. U sizlarni Xudoning ulug‘vorligidan bahramand qiladi*. 15 Orangizda hech
kim qotil, o‘g‘ri, badkirdor yoki janjalkash odam sifatida azob chekmasin. 16 Ammo
masihiy bo‘lganingiz uchun azob cheksangiz, bundan uyalmang, aksincha, sizlarni
bunday nomga sazovor qilgan Xudoni ulug‘lang.
17 Xudo dunyoni hukm qiladigan vaqt keldi. U hukmini O‘z xonadonidan boshlaydi.
Agar biz birinchi navbatda hukm qilinadigan bo‘lsak, unda Xushxabarni rad etib, Xudoga
itoat qilmaganlarning oxirati nima bo‘ladi? 18 Agar solih odam zo‘rg‘a qutulsa, betavfiqu
gunohkorning holi ne kechadi?*
19 Shunday ekan, Xudoning irodasiga ko‘ra, azob chekayotgan bo‘lsangiz, yaxshilik
qilishda davom etinglar, o‘zingizni sodiq Yaratuvchiga topshiringlar.

5–BOB

Oqsoqollarga va yoshlarga nasihat

1 Ey jamoat oqsoqollari, endi sizlarga bir nasihatim bor. Men ham sizlarga o‘xshagan
oqsoqolman. Masih chekkan azoblari haqida shahodat beruvchi va Uning zohir
bo‘ladigan ulug‘vorligining ishtirokchisi sifatida men sizlardan o‘tinaman:
2 Nazoratingizdagi Xudoning suruvini yaxshi boqinglar. Bu xizmatni majburiyat
yuzasidan emas, balki chin ko‘ngildan, Xudoga manzur tarzda bajaringlar. Shunchaki
pulparastlik maqsadida emas, samimiyat bilan ijro etinglar. 3 Qo‘lingiz ostidagi suruvga
o‘z hukmingizni o‘tkazmay, ularga o‘rnak bo‘linglar. 4 Ana shunda, Bosh Cho‘ponimiz —
Masih zohir bo‘lganda, sizlarga so‘lmas, ulug‘vorlik toji beriladi.
5 Ey yoshlar, oqsoqollarga itoat etinglar. Hammangiz — yoshmisiz, qarimisiz,
o‘zingizni kamtar tutib, bir–biringizga xizmat qilinglar. Zero, “Xudo mag‘rurlarga qarshi
chiqadi, kamtarlarga esa inoyat ko‘rsatadi.”* 6 Shunday ekan, Xudoning qudratli qo‘li
ostida o‘zingizni past tutinglar. U O‘z vaqtida sizlarni yuksaltiradi. 7 Barcha
tashvishingizni Xudoga topshiringlar, chunki U hamisha sizlarga g‘amxo‘rlik qiladi.
8 Hushyor va bedor bo‘linglar! Dushmaningiz bo‘lgan iblis sherday bo‘kirib, birovni
yutib yuborish uchun izg‘ib yuribdi. 9 Iblisga mustahkam imon bilan qarshi turinglar.
Shuni bilinglarki, butun dunyodagi imonli birodarlaringiz sizlar kabi, azoblarga duchor

bo‘lmoqdalar. 10 Garchi sizlar bu qisqa hayotda azob chekib yashasangizlar ham,
Xudoning O‘zi sizlarga madad berib, barchangizni barkamol, sabotli, kuch–qudratli va
mustahkam qiladi. Axir, inoyatga boy Xudo Iso Masih orqali sizlarni O‘zining abadiy
ulug‘vorligiga sherik qilish uchun da’vat etgan. 11 Qudratli Xudoga abadulabad hamdlar
bo‘lsin. Omin.

So‘nggi salomlar

12 Men bu qisqa maktubimni Silasning* yordami bilan yozdim. Uni ishonchli birodar
deb bilaman. Maktubimda sizlarga nasihat qilib, Xudoning haqiqiy inoyati haqida
yozdim. Imonda sobit qolishingiz uchun Uning bu inoyatiga tayaninglar.

13 Sizlar kabi Bobildagi* tanlangan imonlilar jamoati va menga o‘g‘ilday bo‘lib qolgan
Mark* sizlarga salom yo‘llamoqdalar.

14 Bir–biringizga mehr–muhabbat ko‘rsatib, o‘pishib ko‘rishinglar. Masihga tegishli
bo‘lgan hammalaringiz tinch–omon bo‘linglar*.

IZOHLAR

Rim imperiyasiga qarashli to‘rtta viloyat — 1:1 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

1:1 *Pontus…Bitiniya viloyatlari* — Rim imperiyasiga qarashli bo‘lgan to‘rtta viloyat, Pontus va Bitiniya bir viloyatni tashkil qilgan. Bu viloyatlar hozirgi Turkiya hududida edi. Hosil bayramida Quddusga o‘sha viloyatlardan bir nechta odamlar kelgan (Havoriylar 2:5-11 ga qarang). Pavlus mana shu viloyatlarning ba’zilarida Xushxabarni e’lon qilgan (Havoriylar 16:6, 18:23, 19:10, 26 ga qarang).

1:2 *Uning to‘kilgan qoni* — yunoncha matnda *Uning sepilgan qoni*. Ibroniylar 9:11-21, 10:19-22 ga qarang.

1:16 Levilar 11:44-45, 19:2 ga qarang.

1:22 *Sizlar haqiqatga bo‘ysunib…* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *Muqaddas Ruh orqali sizlar haqiqatga bo‘ysunib*.

1:24-25 Muallif bu o‘rinda Ishayo 40:6-8 ning qadimiy yunoncha tarjimasidan foydalangan.

2:6 *Quddus* — yunoncha matnda *Sion*. Quddusdagi Ma’bad qurilgan tepalik Sion tog‘i deb atalgan. Eski Ahddagi she’riy parchalarda va payg‘ambarlar bitiklarida Sion so‘zi ko‘pincha Quddus shahriga yoki Xudoning xalqiga nisbatan ishlatilgan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi SION so‘ziga qarang.

2:6 *tamal toshi* — qadimgi paytlarda qurilishda poydevor uchun qo‘yilgan birinchi va eng muhim tosh hisoblanardi. Bu tosh poydevorning bir burchagini hosil qilib, binoning qolgan qismi o‘sha toshning joylashuvi bo‘yicha qurilardi.

2:6 Muallif bu o‘rinda Ishayo 28:16 ning qadimiy yunoncha tarjimasidan foydalangan.

2:7 *Muqaddas bitiklardagi shu so‘zlar* — bu o‘rinda Butrus Zabur 117:22, Ishayo 8:14 ni nazarda tutgan.

2:9 *ruhoniylar shohligi, muqaddas qavm* — Chiqish 19:6 ga qarang. Yana Ishayo 61:6, Vahiy 1:6, 5:9-10, 20:5-6 ga qarang.

2:10 *Sizlar…Undan marhamat topdingizlar* — bu o‘rinda Butrus Xo‘sheya 1:6, 9-10, 2:23 ni nazarda tutgan.

2:13 *Oliy hokim bo‘lgan shoh* — o‘sha paytdagi Rim imperatori.

2:18 *…Xudodan qo‘rqqaningiz uchun…* — yoki *…kamoli ehtirom bilan…*.

2:22 *…U hech qanday gunoh qilmagan, og‘zidan biron yolg‘on so‘z chiqmagan…* — shu bobning 22-25–oyatlarida Butrus Ishayo 53:5-7, 9, 12 ni nazarda tutgan.

2:24 *yog‘och* — Butrus xochga ishora qilib, Qonunlar 21:23 dagi *yog‘ochga qoqilgan odam Xudo tomonidan la’natlangandir* degan gapni tinglovchilariga eslatmoqchi bo‘lgan.

2:25 *Cho‘pon* — ya’ni Iso Masih (Yuhanno 10:11-16, Ibroniylar 13:20 ga qarang).

3:6 *Sora* — Ibtido 18:12 ga qarang.

3:12 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida quyidagi so‘zlar oxirgi misra sifatida qo‘shimcha qilingan: *Ularning xotirasini yer yuzidan o‘chiradi*.

3:10-12 Zabur 33:13-17 ga qarang.

3:15 *Iso Masih* — yunoncha matndan. Ba'zi yunon qo'lyozmalarida *Xudo*.

3:18 *...U yangi, ulug'vor hayot uchun tirildi* — yunoncha matnda *...U ruhda tirilgan*. Bu o'rinda *ruhda* so'zi insonning tirilgan tanadagi yangi holatiga ishora qiladi.

3:19 *zindonga qamalgan yovuz ruhlar* — qilmishlari uchun jazolangan ilohiy zotlarga ishora bo'lishi mumkin, bu zotlar haqida Ibtido 6:1-4 da yozilgan (shu bobning 20–oyatiga qarang). Yana 2 Butrus 2:4, Yahudo 6-7–oyatlarga qarang.

3:20 *Nuh* — Ibtido 6:5-7:23 ga qarang.

3:22 *...Xudoning o'ng tomonida o'tiribdi* — Zabur 109:1 ga qarang. O'ng tomon muruvvat va baraka o'rni deb hisoblangan.

4:6 *...Xudo ularga ulug'vor, yangi hayot ato qiladi* — yunoncha matndan so'zma–so'z tarjimasi *...ular ruhda Xudoga munosib ravishda hayot kechiradilar*. Bu o'rinda *ruhda* so'zi Xudo bilan munosabat qilib kechiriladigan yangi hayot tarziga ishora qiladi.

4:14 Yunoncha matndan. Ba'zi yunon qo'lyozmalarida quyidagi so'zlar oyatga qo'shimcha qilingan: *Ularga qolsa, Ruhni haqorat qiladilar, sizlarda esa Ruh sharaflanadi*.

4:18 *Agar solih odam zo'rg'a qutulsa, betavfiqu gunohkorning holi ne kechadi?* — muallif bu o'rinda Hikmatlar 11:31 ning qadimiy yunoncha tarjimasidan foydalangan.

5:5 Muallif bu o'rinda Hikmatlar 3:34 ning qadimiy yunoncha tarjimasidan foydalangan.

5:12 *Silas* — yunoncha matnda bu ismning boshqa varianti *Silvanus*. Silas ilk jamoatning yetakchisi bo'lib, havoriy Pavlusning Xushxabar yoyish maqsadida qilgan ikkinchi safarida unga hamroh edi (Havoriylar 15:22, 32, 36-41 ga qarang).

5:13 *Bobil* — Eski Ahd davrida Bobil shahri qudratli imperiyaning poytaxti edi. Xudoning xalqi u yerga surgun qilingan. Ushbu kitob yozilgan paytda imonlilar Bobil nomini ba'zan Rimga nisbatan ishlatar edilar. Rim o'sha davrda hukmron bo'lgan imperiyaning poytaxti edi. Butrus bu nomni ramziy ma'noda ishlatayotgan bo'lishi mumkin. An'anaga ko'ra, Butrus umrining so'nggi yillarini Rimda o'tkazgan va o'sha yerda imoni uchun qatl qilingan.

5:13 *Mark* — Mark bayon etgan muqaddas Xushxabarning muallifi. Mark havoriy Butrusning hamkori bo'lgan va uning ta'limoti va va'zlariga asoslangan holda Xushxabarni bayon qilgan. U Quddus shahridan edi (Havoriylar 12:12, 25, 13:5, 15:37-39, 2 Timo'tiy 4:11 ga qarang).

5:14 Yunoncha matndan. Ba'zi yunon qo'lyozmalarida quyidagi so'z oyatga qo'shimcha qilingan: *omin*.

BUTRUSNING

IKKINCHI MAKTUBI

Kirish

Mazkur maktub muallifi Iso Masihning shogirdi havoriy Butrusdir. Butrus birinchi maktubida jamoat boshiga tushgan quvg‘inlar haqida yozib, imonlilarni bardoshli bo‘lishga chaqiradi. Ikkinchi maktubida u soxta ustozlar dastidan jamoatda yuzaga kelgan ichki nizolar va axloqsizlik haqida so‘z yuritadi.

Butrus masihiylarni Xudoga munosib hayot kechirishga, imonni fazlu kamolot va ilmu ma’rifat bilan boyitishga chorlaydi. Masihiylarning fazilatlari va xislatlariga alohida urg‘u beradi.

Mazkur maktub yozilgan davrda imonlilar jamoati orasiga soxta ustozlar kirib olib, masihiylarni yo‘ldan ozdirayotgan edi. Butrus o‘quvchilarni o‘shanday ustozlardan uzoqroq yurish haqida ogohlantiradi va o‘sha yolg‘onchilar albatta jazo olishlarini ta’kidlab o‘tadi.

Soxta ustozlar oxiratda o‘z jazosini olishga ishonmaganlari va Masihning kelishini rad etganlari bois, Butrus Rabbimizning keladigan kuni haqidagi mavzuni batafsil yoritadi. Shu bilan bir qatorda u Rabbimizning kelishiga ko‘z tutgan odamlarga dalda beradi. Ularni beg‘ubor va benuqson hayot kechirishga, Xudoga sodiq qolishga va imonda kamol topishga chaqiradi.

1–BOB

Duoyi salom

1 Iso Masihning quli va havoriysi men — Shimo‘n Butrusdan* biz kabi qadrli bir
imonga ega bo‘lgan birodarlarga salom! Xudoyimiz va najotkorimiz Iso Masih odil
bo‘lgani uchun hammamizga birday baraka bergan. 2 Sizlar Xudoni va Rabbimiz Isoni
tanib–bilar ekansiz, Xudoning cheksiz inoyati va tinchligi doim sizlarga yor bo‘lsin.

Masihning da’vatiga munosib bo‘linglar

3 Rabbimiz Iso O‘z ulug‘vorligi va ezguligi ila bizni da’vat etib, O‘zini bizga tanitdi.
Endi biz Xudoga munosib hayot kechira olamiz, chunki Rabbimiz ilohiy qudrati bilan
bizga zarur bo‘lgan barcha fazilatlarni ato etdi. 4 Masihning sharofati bilan biz Xudo
va’da qilgan barakalarni oldik. Endi sizlar buzg‘unchi ehtiroslar dastidan avj olgan bu
dunyoning axloqsizligidan qochib, Xudoning ilohiy tabiatidan bahramand bo‘la olasizlar.
5 Bularni yodingizda tutib, Xudoga munosib hayot kechirish uchun jon kuydiringlar.
Imoningizni fazlu kamolot, ilmu ma’rifat, 6 vazminlik, sabr–toqat, diyonat,
7 birodarlaringizga bo‘lgan mehr–oqibat va tugal muhabbat bilan boyitinglar. 8 Agar bu
xislatlarga ega bo‘lib, ularni kamol toptirayotgan bo‘lsangiz, demak, Rabbimiz Iso
Masihni haqiqatan tanib–bilgan bo‘lasiz. Kunlaringiz behuda o‘tmagan bo‘ladi, Masihni
bilganingiz hayotingizda o‘z samarasini beradi. 9 Bu xislatlarga ega bo‘lmaganlar esa
kaltabin va ko‘rdirlar, ular avvalgi gunohlaridan poklanganini unutganlar.
10 Shunday ekan, ey birodarlarim, Masih sizlarni tanlaganini va da’vat etganini

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

tasdiqlashga astoydil harakat qilinglar. Aytilgan xislatlarga ega bo‘lsangiz, imondan qaytmaysizlar. 11 Shunda Rabbimiz va najotkorimiz Iso Masih sizlarga O‘zining abadiy Shohligi eshiklarini keng ochib beradi.

12 Sizlar aytganlarimning hammasini bilasizlar, o‘zlaringiz Masih haqida o‘rgangan haqiqatda sobit turibsizlar. Shunga qaramay, bularni sizlarga doimo eslatib turishni xohlayman. 13 Tirik ekanman, bularni yodingizga solib turishni kanda qilmayman. Bu men uchun farz, 14 chunki hademay bu olamdan ko‘z yumishimni bilaman. Rabbimiz Iso Masihning O‘zi buni menga ma’lum qilgan. 15 Bu dunyodan o‘tib ketganimdan keyin ham, sizlar aytganlarimni esda saqlanglar, deb men bu mavzuni qo‘limdan kelgancha batafsil yoritib berishga harakat qildim.

Masihning kelishi afsona emas

16 Rabbimiz Iso Masihning kuch–qudrat bilan kelishi afsona emas. Biz sizlarga o‘rgatgan bu ta’limotni o‘zimiz to‘qib chiqarmadik. Axir, Masihning ulug‘vorligini o‘z ko‘zimiz bilan ko‘rgan edik. 17-18 Otamiz Xudo muqaddas tog‘da* Masihni shon–sharaf ila yuksaltirganda, biz o‘sha yerda edik. Mahobatli va ulug‘vor Xudoning samodan: “Bu Mening sevikli O‘g‘limdir*, Undan mamnunman*”, — degan ovozini eshitgan edik.

19 Bundan tashqari, biz payg‘ambarlarning bashoratlariga to‘liq ishonamiz. Sizlar ham ularning so‘zlariga diqqat etsangizlar, yaxshi qilgan bo‘lasizlar. Zero, bu so‘zlar Masih keladigan kungacha sizlar uchun go‘yo zulmatda nur sochib turgan chiroqday bo‘ladi. So‘ng Masihning O‘zi keladi. Uning kelishi tong yulduzi kabi bo‘lib, yangi zamonning boshlanishidan darak beradi, Masihning nuri qalblaringizni yoritadi. 20 Eng avvalo, shuni bilinglarki, Muqaddas bitiklardagi bashoratlarning hech biri payg‘ambarlarning shaxsiy talqini emas. 21 Hech bir haqiqiy payg‘ambar o‘zining insoniy xohishi bilan bashorat qilgan emas. Bu payg‘ambarlar Muqaddas Ruh tomonidan boshqarilib, Xudoning so‘zlarini gapirganlar.

2–BOB

Soxta ustozlarning gunohi va jazosi

1 Isroil xalqi orasida soxta payg‘ambarlar bo‘lgani kabi, sizlarning orangizda ham soxta ustozlar bo‘ladi. Ular nayrang ishlatib, orangizda halokatli bid’atlar tarqatadilar. Hatto ularning jonlarini sotib olgan Xo‘jayinini ham rad etib, bu bilan o‘zlarini muqarrar kulfatga yo‘liqtiradilar. 2 Ko‘p odamlar ularga taqlid qilib, axloqsiz hayot kechiradilar. Ularning dastidan imonsizlar haqiqat yo‘lini yomonlaydilar. 3 Bu tamagir ustozlar to‘qib chiqargan gaplari bilan sizlarni yo‘ldan ozdiradilar, so‘ng pulingizni shilib oladilar. Ammo Xudo bunday odamlarni ancha oldin o‘limga mahkum qilib qo‘ygan. U mudramaydi, ularning halokatini kechiktirmaydi.

4 Xudo hatto gunoh qilgan farishtalarni* ham ayamagan. Qiyomat kunigacha ularni tubsiz chuqurlikdagi zulmatga zanjirband qilib qo‘ygan. 5 Xudo qadimgi dunyoni ham ayamay, betavfiqlar ustiga to‘fon keltirdi. U faqat solihlik jarchisi bo‘lgan Nuhni* va boshqa yetti kishini omon saqladi. 6 Xudo Sado‘m va G‘amo‘ra shaharlarini* halokatga mahkum etdi. Xudosizlarga saboq bo‘lsin deb, bu shaharlarni kuydirib kul qildi. 7 Bebosh odamlarning o‘taketgan axloqsizliklaridan azob chekkan solih Lutni* esa qutqardi. 8 O‘sha xalq orasida yashagan bu solih odam har kuni ularning qabih ishlarini ko‘rib eshitgani uchun ichidan ezilib qiynalar edi. 9 Bu misollar quyidagilarni anglatadi: Egamiz

taqvodorlarni kulfatlardan qutqara oladi, betavfiqlarni esa qiyomat kunidagi azoblar uchun saqlaydi. 10 Ayniqsa, shahvoniy hirsga berilib, o‘z tanasini bulg‘atuvchi, ilohiy hokimiyatni esa rad qiluvchi odamlarni U jazolaydi.

Darvoqe, orangizdagi soxta ustozlar ham ilohiy hokimiyatni rad qilyaptilar, ular surbet va takabburdirlar. Ular samoviy mavjudotlardan* qo‘rqmaydilar, ularni nazarga ham ilmaydilar. 11 Farishtalar o‘sha yovuz mavjudotlardan kuchliroq va qudratliroq bo‘lishlariga qaramay, Egamizning huzurida mavjudotlarni haqoratlamaydilar, hukm ham qilmaydilar. 12 Ammo bu soxta ustozlar yovvoyi hayvonlarga o‘xshaydilar, ular faqat tug‘ma his–tuyg‘ulariga berilib yashaydilar. O‘zlari anglab yetmaydigan yovuz mavjudotlarni mensimay yuribdilar. Biroq ular o‘sha mavjudotlar bilan birga halok bo‘ladilar, hayvonlar singari ovlanib, yo‘q qilinadilar.

13 Soxta ustozlarning qilgan nohaqliklari o‘zlarining boshiga yetadi. Axir, ular kuppa–kunduzi aysh–ishrat qilishni xush ko‘radilar, jamoatingiz sha’niga dog‘ tushiradilar. Sizlar taom yeyish uchun birga yig‘ilganingizda, Rabbimiz Isoni xotirlash uchun non sindirganingizda, ular orangizda o‘tirib, kayfu safo qiladilar. Buzuqligi bilan boshqalarni yo‘ldan uradilar. 14 Ko‘zlari doimo shahvat bilan yonadi, gunoh qilib to‘ymaydilar. Ular imonda sust kishilarni ovlab, yo‘ldan ozdiradilar. Bu soxta ustozlar istagan narsasini undirib olishga ustasi farangdirlar. Eh, la’natga uchragurlar! 15 Ular to‘g‘ri yo‘lni tark etdilar, Bavo‘r o‘g‘li Balom* yo‘lidan borib, gumroh bo‘ldilar. Balom harom yo‘l bilan pul topishni xush ko‘rgandi. 16 Lekin bu gunohi uchun ta’zirini yedi. Tilsiz eshak tilga kirib, inson ovozi bilan payg‘ambarning ahmoqligiga chek qo‘ydi.

17 Bu soxta ustozlar bamisoli suvsiz quduqdirlar, shamolda tez g‘oyib bo‘ladigan tuman kabidirlar. Ular uchun tim qorong‘i zulmat tayyorlab qo‘yilgan. 18 Chunki ular noto‘g‘ri yo‘ldan zo‘rg‘a qochib qutulgan imonlilarni yana axloqsizlik domiga tortadilar. Dabdabali, ammo tentaksimon gaplari bilan ularni avrab, nafslarini qo‘zg‘atadilar. 19 Ularga: “Erkin bo‘lasizlar”, deya va’da beradilar, holbuki, o‘zlari gunoh qulidirlar. Axir, odam nimadan yengilsa, o‘shaning quli bo‘lar, deb bejiz aytilmagan.

20 Rabbimizu najotkorimiz bo‘lgan Iso Masihni tanib, dunyoning qabohatlaridan qochib qutulgan odamlar yana eski qiliqlariga qaytib, qabihlikka mag‘lub bo‘lishsa, ularning so‘nggi ahvoli oldingidan ham battar bo‘ladi. 21 Solihlik yo‘lini bilgandan keyin, ularga topshirilgan muqaddas amrlardan yuz o‘girgandan ko‘ra, bu yo‘lni hech bilmagani o‘zlari uchun yaxshiroq bo‘lar edi. 22 Bunday odamlarga mana shu maqol aynan to‘g‘ri keladi:

> “It o‘z qusug‘iga qaytar*,
> Yuvilgan cho‘chqa esa balchiqqa.”

3–BOB

Isoning olamga kelishi muqarrardir

1 Ey azizlarim, bu mening sizlarga yozayotgan ikkinchi maktubimdir. Ikkala maktubimda ham sizlarda pok fikr uyg‘otishga harakat qilib, o‘rganganlaringizni yodingizga solmoqchi bo‘ldim. 2 Xususan, Muqaddas payg‘ambarlarning o‘tmishda aytgan so‘zlarini, shuningdek, Rabbimiz va najotkorimiz Isoning amrlarini eslashingizni istadim. Rabbimiz Iso bu amrlarni oldingizga borgan havoriylar orqali bergan.

3 Avvalo, shuni bilinglar: oxirgi kunlarda shunday mazaxchilar bo‘ladiki, ular chirkin
ehtiroslariga berilib yashaydilar. Sizlarni mazax qilib, 4 shunday deydilar: “Rabbimiz Iso
kelaman deb, so‘z bergan edi. Qani U?! Mana, ota–bobolarimiz dunyodan o‘tib
ketganlaridan beri, hech narsa o‘zgarmadi. Dunyo bino bo‘lganidan beri, hamma narsa
shundayligicha turibdi.”
5 Ular haqiqatni rad etganlari uchun shunday gapiradilar, azalda Xudo yeru osmonni
O‘z kalomi orqali yaratganini ular inobatga olmaydilar. O‘shanda Xudo yeru osmonni
suvlar orasidan paydo qilgandi. 6 So‘ng esa O‘z kalomi orqali qadimgi dunyoni o‘sha
suvlar girdobiga cho‘ktirgandi. 7 Hozirgi yeru osmonni esa Xudo O‘z kalomi bilan
qiyomat kunigacha asrab turibdi. Qiyomat kuni U hozirgi dunyoni olovga yem qilib,
barcha betavfiqlarni halok etadi.
8 Ey azizlarim, Rabbimiz Isoning nazarida bir kun ming yil va ming yil bir kun
kabidir, buni doim inobatga olinglar. 9 Ba’zilar Rabbimiz kelmayapti, bergan va’dasini
bajarishga U kechikyapti, deb o‘ylamoqda. Aslida unday emas, U sabr–toqat qilyapti,
chunki hech kimning halok bo‘lishini istamay, hammaning tavba qilishini xohlayapti.
10 Aslida, Rabbimiz Iso, o‘g‘ri kelganday, nogahon kelib qoladi. O‘sha kuni osmon
guvullab yonib, g‘oyib bo‘ladi, samoviy jismlar olov taftidan kuyib ketadi, shunda yer va
unda qilingan har bir ish ochiqdan–ochiq oshkor bo‘lib, hukm etiladi*. 11 Qiyomat kuni
butun borliq yonib, yo‘q bo‘lib ketar ekan, sizlar Xudoni mamnun qilishga jon
kuydiringlar! Muqaddas hayot kechirishga jon–jahdingiz bilan harakat qilinglar.
12 Xudoning kunini intizorlik bilan kutinglar, uning kelishini tezlashtiringlar! O‘sha kuni
osmon yonib, yo‘q bo‘ladi, samoviy jismlar olov taftidan erib ketadi. 13 Shundan so‘ng
Xudoning va’dasi amalga oshib, hamma narsa yangilanadi*. Ha, biz yangi yeru osmonga,
adolat hukm suradigan dunyoga ko‘z tikkanmiz.

Dalda va ogohlantirish

14 Ey azizlarim, sizlar yangi dunyoni kutar ekansiz, Xudo nazarida benuqson va
beg‘ubor bo‘lishga, U bilan totuv yashashga jon kuydiringlar. 15 Rabbimiz Isoning sabr–
toqatini najot uchun imkoniyat deb bilinglar. Aziz birodarimiz Pavlus ham Xudoning
bergan donoligi bilan sizlarga muqaddas hayot va Rabbimizning kelishi haqida yozgan.
16 Pavlus barcha maktublarida bular haqida fikr yuritgan. Uning maktublaridagi
tushunish qiyin bo‘lgan ba’zi parchalarni uquvsiz va imoni sust kishilar buzib talqin
qiladilar. Muqaddas bitiklarning boshqa joylarini ham buzib o‘rgatadigan bu kishilar o‘z
boshini o‘zi yeydilar.
17 Ey azizlarim, sizlar bularning hammasini oldindan bilasizlar. Ehtiyot bo‘linglar, bu
bebosh odamlarning soxta ta’limotiga ishonib yo‘ldan ozmanglar, qaroringizda sobit
bo‘linglar. 18 O‘z hayotingiz bilan Xudoni mamnun etinglar, Rabbimiz va najotkorimiz Iso
Masihni yanada yaqinroq tanib–bilinglar. Hozirdan to abad Unga shon–sharaflar bo‘lsin!
Omin.

IZOHLAR

1:1 *Shimoʻn Butrus* — Iso Masih Shimoʻnga Butrus ismini bergan edi (Mark 3:16, Luqo 6:14 ga qarang). Ba'zan ikkala ism, Shimoʻn Butrus, birgalikda ishlatilgan.

1:17-18 *...muqaddas togʻda...* — Matto 17:1-8 ga qarang.

1:17-18 *Bu Mening sevikli Oʻgʻlimdir* — Zabur 2:7 ga qarang.

1:17-18 *Undan mamnunman* — Ishayo 42:1 ga qarang.

2:4 *gunoh qilgan farishtalar* — qilmishlari uchun jazolangan ilohiy zotlarga ishora boʻlishi mumkin, bu zotlar haqida Ibtido 6:1-4 da yozilgan. Yana 1 Butrus 3:19-20, Yahudo 6-7–oyatlarga qarang.

2:5 *Nuh* — Ibtido 6:5-7:24 ga qarang.

2:6 *Sadoʻm va Gʻamoʻra shaharlari* — aholisining oʻta buzuqligi oqibatida Egamiz vayron qilgan ikkita shahar (Ibtido 18:16-19:28 ga qarang).

2:7 *Lut* — Ibtido 19:1-29 ga qarang.

2:10 *samoviy mavjudotlar* — yovuzlik va qabihlikka yuz tutgan farishtalarga ishora. Ba'zan bu farishtalar yovuz ruhlar yoki jinlar deb ham ataladi. Yana Yahudo 8-10–oyatlarga qarang.

2:15 *Balom* — Moʻab va Midiyon xalqlari bilan qilgan hamkorligi uchun Isroil xalqining dushmani hisoblangan edi (Sahroda 22:4-35, 25:1-5, 16-18, 31:16, Yoshua 13:22, 24:9-10, Vahiy 2:14 ga qarang).

2:22 *It oʻz qusugʻiga qaytar...* — Hikmatlar 26:11 ga qarang.

3:10 *...ochiqdan–ochiq oshkor boʻlib, hukm etiladi* — yunoncha matndan. Ba'zi yunon qoʻlyozmalarida *kuyib bitadi*.

3:13 *...Xudoning va'dasi amalga oshib, hamma narsa yangilanadi* — Ishayo 65:17 ga qarang. Yana Rimliklar 8:19-21, Vahiy 21:1-5 ga qarang.

YUHANNONING
BIRINCHI MAKTUBI

Kirish

Mazkur maktub muallifi Iso Masihning shogirdi Yuhannodir. Muallif, bu maktubdan tashqari, “Yuhanno bayon etgan Xushxabar”, “Yuhannoning ikkinchi maktubi”, “Yuhannoning uchinchi maktubi” va “Vahiy” kitoblarini ham yozgan.

Yuhanno bu maktubi orqali imonlilarni Xudo bilan aloqada bo‘lishga, nurda yashashga, gunoh qilmaslikka, bir–birlariga nisbatan mehr–oqibatli bo‘lishga undaydi. Ular abadiy hayotga ega ekanligini eslatadi. Shuningdek, masihiylarni soxta payg‘ambarlarning yolg‘on ta’limoti haqida ogohlantiradi. Chunki bu yolg‘on ta’limot dastidan ko‘p imonlilar gumroh bo‘lib, Xudodan uzoqlashgan edilar.

Soxta payg‘ambarlarning bu ta’limotiga ko‘ra, moddiy dunyo bilan bo‘lgan har qanday aloqa yomonlikni keltirib chiqarar emish. Soxta payg‘ambarlar jismoniy tanani ham moddiyat tufayli bulg‘angan deb bilganlari uchun, Masih*, ya’ni Xudoning O‘g‘li inson bo‘lib kelmagan*, deb aytishgan. Ular, ruhiy hayot bilan moddiy dunyo orasida hech qanday bog‘liqlik yo‘q, shuning uchun najot topgan odam dunyo tashvishlaridan xoli ravishda, mehr–oqibat va odob–axloq qoidalariga e’tibor bermasdan yashashi kerak degan g‘oyani ilgari surishgan.

Yuhanno bu soxta ta’limotni fosh etib, Masih haqiqiy inson bo‘lganini ta’kidlaydi, shu bilan bir qatorda, Xudoni sevgan hamma odamlarni bir–birlariga mehr–oqibatli bo‘lishga chaqiradi.

1–BOB

Muqaddima: Hayot kalomi

1 Boshidan ayon bo‘lgan Hayot kalomi* haqida biz sizlarga xabar bermoqchimiz.
Ko‘rib eshitganlarimizni, ha, o‘z ko‘zimiz bilan ko‘rib, o‘z qo‘llarimiz bilan paypaslab
ko‘rganlarimizni* sizlarga ma’lum qilmoqchimiz. 2 Otamiz Xudoning huzurida bo‘lgan
Hayot bizga oshkor bo‘ldi! Biz bu abadiy Hayotni ko‘rib, endi U haqda sizlarga shohidlik
qilyapmiz. 3 Ko‘rgan–eshitganlarimizni ma’lum qilish orqali sizlar bilan birodar bo‘lib
yashamoqchimiz. Zero, o‘zimiz ham Otamiz Xudo va Uning O‘g‘li Iso Masih bilan
yashayapmiz. 4 Bularni sizlarga qalbimiz* shodlikka to‘lsin deb, yozyapmiz.

Nurda yashash to‘g‘risida

5 Biz Iso Masihdan eshitib, sizlarga yetkazayotgan Xushxabarimiz shundan iborat:
Xudo — nur, Unda hech qanday zulmat yo‘q. 6 Agar biz Xudo bilan yashayapmiz deb
turib, oldingiday zulmatda yashasak, yolg‘on gapirib, haqiqatga xilof ish qilgan bo‘lamiz.
7 Bordi–yu, Xudo singari nurda yashasak, biz birodarlarimiz bilan uyg‘unlikda
yashaymiz va Xudo O‘z O‘g‘li Isoning qoni orqali bizni har qanday gunohdan poklaydi.
8 Agar gunohimiz yo‘q desak, o‘zimizni o‘zimiz aldagan bo‘lamiz va bizda haqiqat
bo‘lmaydi. 9 Bordi–yu, gunohlarimizni e’tirof etsak, sodiq va adolatli bo‘lgan Xudo
gunohlarimizni kechirib, bizni har qanday yomonlikdan forig‘ qiladi.

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

10 Agar gunoh qilganimiz yoʻq desak, Xudoni yolgʻonchiga chiqargan boʻlamiz.
Demak, Uning kalomi qalbimizdan joy olmagan boʻladi.

2–BOB

1 Aziz bolalarim*, gunoh qilmanglar deb, men sizlarga shularni yozyapman. Bordi–
yu, birortamiz gunoh qilib qoʻysak, Otamiz Xudoning oldida homiyimiz — Iso Masih bor,
U Solih Zotdir. 2 U bizni gunohlarimizdan poklash uchun qurbon boʻldi. Nafaqat bizning,
balki butun dunyoning gunohlari uchun qurbon boʻldi.

Haqiqiy imonlining fazilatlari

3 Xudoni tanib–bilganimizni shundan bilsak boʻladi: Xudoni tanib–bilgan odam Uning
amrlariga rioya qiladi. 4 Xudoni bilaman deb turib, Uning amrlariga rioya qilmagan esa
yolgʻonchidir, unda haqiqat yoʻq. 5 Xudoning kalomiga itoat qilgan odamda esa Xudoning
sevgisi oʻz mukammal ifodasini topgan. Biz Xudo bilan birga ekanimizni ana shundan
bilsak boʻladi.
6 Men Xudo bilan birgaman degan odam Iso Masih yashaganday yashashi kerak. 7 Ey
azizlarim, men sizlarga yangi amrni emas, balki boshidan oʻzingizga ma’lum boʻlgan eski
amrni yozyapman. Bu eski amr sizlar eshitgan Xudoning kalomidir. 8 Ammo men
yozayotgan bu amrni yangi desam ham boʻladi, chunki bu amr Masih va sizlar orqali
amal qilmoqda. Haqiqatan ham, zulmat oʻtib bormoqda, haqiqiy nur hozirdanoq
porlamoqda.
9 Men nurda yashayapman deb turib, oʻz birodaridan nafratlangan odam hali ham
zulmatdadir. 10 Birodarini sevgan odam esa nurda yashaydi va hech qanday narsa uning
qulashiga sabab boʻla olmaydi*. 11 Ammo birodaridan nafratlangan odam zulmatdadir. U
zulmatda yurib, qayerga ketayotganini bilmaydi, chunki zulmat uning koʻzlarini koʻr
qilgan.

12 Aziz bolalarim, sizlarga yozyapman: Masih tufayli gunohlaringiz kechirildi.
13 Ey otalar, sizlarga yozyapman: sizlar boshidan ayon boʻlgan Masihni*
tanib–bildingizlar.
Ey yigitlar, sizlarga yozyapman: sizlar yovuz shaytonni yengdingizlar.

Ey bolajonlar, sizlarga yozyapman: sizlar Otamiz Xudoni bildingizlar.
14 Otalar, sizlarga yozyapman: sizlar boshidan ayon boʻlgan Masihni tanib–
bildingizlar.
Yigitlar, sizlarga yozyapman: sizlar baquvvatsizlar, Xudoning kalomi
qalbingizdan joy olgan, sizlar yovuz shaytonni yengdingizlar.

Dunyoga koʻngil bogʻlamanglar

15 Dunyoga va undagi narsalarga koʻngil bogʻlamanglar. Dunyoni sevgan odamda
Otamiz Xudoning sevgisi boʻlmaydi. 16 Zero, dunyodagi bor narsa — inson tabiatining
xohishlari, nafs va boylik bilan magʻrurlanish Otadan emas, balki dunyodandir. 17 Dunyo
ham, uning nafsi ham oʻtib ketadi. Xudoning irodasini bajargan odam esa abadiy
yashaydi.

Masih dushmanining ta’limoti haqida ogohlantirish

18 Bolajonlarim, dunyoning soʻnggi damlari* keldi! Masihning dushmani* kelishini

eshitgansizlar. Mana, hozirdan Masihning ko‘p dushmanlari paydo bo‘ldi. Ana shundan biz so‘nggi damlarda yashayotganimizni bilamiz. 19 Aslida, bu odamlar o‘z oramizdan chiqdilar, ammo ular bizga tegishli bo‘lmaganlar. Shuning uchun bizni tark etdilar. Agar bizga qarashli bo‘lganlarida edi, biz bilan qolgan bo‘lar edilar. Ammo chiqib ketganlaridan shunisi ma’lum bo‘ldiki, birontasi ham bizga qarashli emas.

20 Sizlar esa hammangiz haqiqatni bilasizlar, chunki sizlar Iso Masihdan* Muqaddas Ruhni* qabul qilgansizlar. 21 Sizlar haqiqatni bilmaganingiz uchun emas, aksincha, bilganingiz uchun men bularni sizlarga yozyapman. Yolg‘onchilar haqiqatga mansub emasligini ham eslatmoqchiman. 22 Isoni Masih* emas, deydigan har qanday odam — yolg‘onchi, u Masihning dushmanidir! U Otamiz Xudoni ham, O‘g‘ilni ham rad etadi. 23 O‘g‘ilni rad etgan odamda Ota yo‘q. O‘g‘ilni tan olgan odamda esa, Ota ham bor.

24 Sizlar boshidan eshitgan kalomni qalbingizda saqlanglar. Agar boshidan eshitgan kalomni qalbingizda saqlasangiz, sizlar ham O‘g‘il, ham Ota bilan birga yashaysizlar. 25 Masihning* O‘zi buni bizga va’da qilgan. Bu abadiy hayotdir. 26 Sizlarni yo‘ldan ozdirmoqchi bo‘lgan odamlardan ehtiyot bo‘linglar deb, bularni sizlarga yozyapman.

27 Ammo sizlar Iso Masihdan* Muqaddas Ruhni qabul qilgansizlar. Muqaddas Ruh ichingizda yashayotgani uchun sizlarga hech kimning biror narsa o‘rgatishiga hojat yo‘q. Muqaddas Ruh sizlarga hamma narsani o‘rgatadi, Uning ta’limoti soxta emas, haqiqiydir. U sizlarga o‘rgatganidek, Masih bilan yashashingiz kerak.

Xudoning bolalari va iblisning bolalari haqida

28 Ha, aziz bolalarim, bu so‘nggi damlarda Masih bilan yashanglar, toki U olamga kelganda dadil bo‘laylik, Uning oldida uyalib qolmaylik. 29 Biz Masihning odil ekanligini bilamiz. Shuning uchun adolatli ish tutgan har qanday odam Xudoning farzandi ekanligiga amin bo‘lamiz.

3–BOB

1 Qaranglar, Otamiz Xudo bizni farzandlarim deb, qanday buyuk bir sevgini ko‘rsatdi! Haqiqatan ham, biz Uning farzandlarimiz. Dunyo Otamizni hech qachon tan olmagan, shuning uchun bizni ham Xudoning farzandlari deb tan olmayapti. 2 Ha, azizlarim, hozir biz Xudoning farzandlarimiz. Ammo kelajakda kim bo‘lishimiz bizga hanuz ochilmagan. Faqat shuni bilamizki, o‘sha payt kelganda, biz Xudo singari bo‘lamiz, chunki Xudoning O‘zini ko‘ramiz. 3 Xudoga bunday umid bog‘lagan har bir odam Iso Masih singari pok bo‘lishi uchun o‘zini poklaydi.

4 Gunoh qiluvchi har qanday odam Xudoga qarshi bosh ko‘targan bo‘ladi, chunki gunoh Xudoga qarshi bosh ko‘tarmoq demakdir. 5 Masih esa gunohlarimizni yuvish uchun kelganini bilasizlar. Unda gunoh yo‘qligi o‘zingizga ayon. 6 Masih bilan yashagan har bir odam gunohdan yuz o‘giradi. Gunoh qilib yurgan odam esa, Masihni ko‘rmagan ham, tanimagan ham.

7 Aziz bolalarim*, hech kim sizlarni aldamasin. Adolatli ish qiluvchi har qanday odam xuddi Masih singari odildir. 8 Gunoh qiluvchi esa iblis zotidandir. Chunki iblis azaldan gunoh qilib kelyapti. Ammo Xudoning O‘g‘li iblisning ishlarini barbod qilish uchun keldi. 9 Xudoning bolalari gunoh qilmaydi, chunki Xudoning hayotbaxsh kuchi* ularning ichidadir. Ular Xudoning bolalari bo‘lganlari uchun gunohda yashamaydilar. 10 Adolatli ish qilmagan va o‘z birodarini sevmagan odam esa Xudodan emas. Demak, iblis bolalari

bilan Xudo bolalarining farqi ana shundadir.

Bir–birimizni yaxshi koʻraylik!

11 Sizlar boshidan eshitgan kalom shu: bir–birimizni yaxshi koʻraylik! 12 Yovuz
shayton zoti boʻlgan Qobilga* oʻxshamaylik. U oʻz ukasini oʻldirgandi. Nima uchun
ukasini oʻldirdi? Chunki uning ishlari qabih, ukasining ishlari esa toʻgʻri edi.
13 Ey birodarlarim, agar dunyo sizdan nafratlanayotgan boʻlsa, hayratlanmanglar.
14 Biz oʻlimdan hayotga oʻtganimizni bilamiz, chunki birodarlarimizni sevamiz.
Birodarini sevmagan odam esa oʻlim iskanjasida qolgan. 15 Birodaridan nafratlangan har
qanday kishi qotildir. Hech bir qotil abadiy hayotga ega boʻlmasligini bilasizlar. 16 Masih
bizlar uchun jonini fido qildi, ana shundan biz haqiqiy sevgini bildik. Demak, biz ham
birodarlarimiz uchun jonimizni fido qilishga burchlimiz. 17 Agar oʻzimizga toʻq boʻlib
turib, muhtojlikda yashayotgan birodarimizni koʻrsak–u, unga yordam bermay
yuragimizni tosh qilsak, qanday qilib bizda Xudoning sevgisi joy oladi?!
18 Aziz bolalarim, biz haqiqiy sevgimizni quruq gap bilan emas, amalda koʻrsataylik.
19-20 Shunda biz haqiqat ahli ekanimizga ishonch hosil qilamiz. Hattoki vijdonimiz
qiynalganda ham “Xudo hamma narsani biladi, U vijdonimizdan ham ulugʻ” degan
haqiqat bilan Xudoning huzurida oʻzimizni tinchlantira olamiz. 21 Agar vijdonimiz bizni
qiynamasa, ey azizlarim, Xudo oldida dadil boʻlamiz 22 va Undan nima soʻrasak, U beradi.
Chunki biz Uning amrlarini bajarib, Unga manzur boʻlgan ishlarni qilyapmiz. 23 Xudoning
amri esa Uning Oʻgʻli Iso Masihga ishonishdan va Masih buyurganidek, bir–birimizni
sevishdan iboratdir. 24 Xudoning amrlarini bajargan odam Xudo bilan birga va Xudo u
bilan birga yashaydi. Xudo biz bilan yashayotganini U har birimizga bergan Ruhidan
bilamiz.

4–BOB

Ruhlarni sinovdan oʻtkazing

1 Ey azizlarim, menda Xudoning Ruhi bor degan har qanday odamga ishonib
ketavermanglar. Har bir odamni sinanglar, u Xudodan yoki Xudodan emasligini
bilinglar, chunki dunyoda soxta paygʻambarlar koʻpayib ketgan. 2 Odamda Xudoning
Ruhi borligini shundan bilib olsangiz boʻladi: Iso Masih inson boʻlib kelganini* tan
oladigan har bir odam Xudodandir. 3 Buni tan olmaydigan odam esa Xudodan emas.
Bunday odamdagi ruh Masihning dushmanida* boʻladigan ruhdir. Masihning dushmani
kelishi haqida eshitgansizlar. Mana, unda boʻladigan ruh hozirdanoq shu dunyodadir.
4 Sizlar esa, aziz bolalarim*, Xudodansizlar va soxta paygʻambarlarni yengdingizlar.
Axir, ichingizdagi Ruh dunyodagi shaytondan ustundir. 5 Oʻsha soxta paygʻambarlar bu
dunyodan, ularning gapi ham bu dunyoga tegishli, shuning uchun dunyo ularga quloq
soladi. 6 Biz esa Xudodanmiz. Xudoni tanigan odam bizga quloq soladi, Xudodan
boʻlmagan esa quloq solmaydi. Haqiqat Ruhi bilan yolgʻon ruhini biz ana shundan
farqlay olamiz.

Sevgi Xudodandir

7 Ey azizlarim, bir–birimizni yaxshi koʻraylik, chunki sevgi Xudodandir. Sevadigan
har bir odam Xudoning farzandidir va Xudoni biladi. 8 Sevmaydigan odam esa Xudoni
hech qachon bilmagan. Axir, Xudo sevgidir. 9 Xudo bizga boʻlgan sevgisini shunday

namoyon qildi: U bizga hayot berish uchun yagona O‘g‘lini dunyoga yubordi. 10 Haqiqiy
sevgi — bizning Xudoga bo‘lgan sevgimiz emas, balki Xudoning bizga ko‘rsatgan
sevgisidir. Zero, Xudo bizni gunohlarimizdan poklash uchun O‘z O‘g‘lini qurbon qildi.
11 Azizlarim, Xudo bizni shu qadar sevgani uchun biz ham bir–birimizni yaxshi
ko‘rishimiz kerak. 12 Hech kim hech qachon Xudoni ko‘rgan emas. Agar biz bir–birimizni
yaxshi ko‘rsak, demak, Xudo biz bilan birga va Uning sevgisi bizda o‘zining mukammal
ifodasini topgan. 13 Xudo har birimizga O‘z Ruhini bergan. Shundan bilamizki, Xudo biz
bilan va biz Xudo bilan birga yashamoqdamiz. 14 Otamiz Xudo O‘z O‘g‘lini dunyoning
Najotkori qilib yuborganini biz ko‘rdik va bu haqda guvohlik beryapmiz. 15 Isoni
Xudoning O‘g‘li deb tan olgan har bir odam Xudo bilan birga yashaydi va Xudo u bilan
birga yashaydi. 16 Xudoning bizga bo‘lgan mehr–muhabbatini biz tatib ko‘rib, Xudo bizni
yaxshi ko‘rishiga ishonch hosil qildik.

Xudo sevgidir. Sevgini diliga jo qilgan kishi Xudo bilan birga yashaydi va Xudo u
bilan birga yashaydi. 17 Shu tariqa Uning sevgisi bizda mukammal ifodasini topadi.
Shunda biz qiyomat kunini dadillik bilan qarshilab olamiz, chunki hozirdanoq Masih
singari, Xudo bilan birga yashamoqdamiz. 18 Xudoning sevgisini ardoqlagan kishi
qiyomat kunidan qo‘rqmaydi, chunki qalbini to‘ldirgan Xudoning sevgisi bu qo‘rquvni
quvib chiqaradi. Qo‘rqoq kishining qalbi esa Xudoning sevgisiga to‘lmagan. Shuning
uchun u qiyomat kunidan qo‘rqib yashaydi.
19 Biz sevamiz*, chunki Xudo bizni birinchi bo‘lib sevdi. 20 Agar biror kishi Xudoni
sevaman desa–yu, birodaridan nafratlansa, u yolg‘onchidir. Ko‘rib turgan birodarini
seva olmagan odam ko‘rmagan Xudoni ham seva olmaydi. 21 Xudoni sevgan odam
birodarini ham yaxshi ko‘rishi kerak! Bu amrni bizga Xudo bergan.

5–BOB

1 Isoning Masih* ekanligiga ishongan har bir kishi Xudoning farzandidir. Kim Otani
yaxshi ko‘rsa, Uning farzandlarini ham yaxshi ko‘radi. 2 Biz bilamizki, Xudoni sevib,
Uning amrlarini bajarsak, Xudoning farzandlarini ham yaxshi ko‘rgan bo‘lamiz. 3 Xudoni
sevish Uning amrlarini bajarish demakdir. Xudoning amrlari esa qiyin emas, 4 chunki
Xudoning har bir farzandi dunyoni yengishga qodir.

Isoga bo‘lgan imonimiz dunyoni yengadi

Biz imonimiz orqali dunyo ustidan g‘alaba qozonamiz. 5 Ha, Iso Xudoning O‘g‘li
ekanligiga ishongan odamgina dunyoni yenga oladi! 6 Iso Masih kelganda suvga
cho‘mdirilib, biz uchun O‘z qonini to‘kdi. U suvga cho‘mish bilan cheklanibgina qolmay*,
O‘z qonini to‘kdi*. Muqaddas Ruhning O‘zi bu haqda guvohlik beryapti* va Uning
guvohligi haqiqatdir. 7 Shunday qilib, bunga uchta guvoh bor: 8 Ruh, suv va qon*. Ular bir
xil guvohlik berishyapti.
9 Biz insonlarning guvohligini qabul qilamiz, Xudoning guvohligi esa undan
qanchalar muhimroq. Xudo ham O‘z O‘g‘li haqida guvohlik berdi. 10 Xudoning O‘g‘liga
ishongan odam Xudoning guvohligini chin dildan qabul qilgan bo‘ladi. Xudoga
ishonmagan odam esa Xudoni yolg‘onchiga chiqaradi, chunki u Xudoning O‘z O‘g‘li
haqida bergan guvohligiga ishonmaydi. 11 Xudoning guvohligi shundan iborat: Xudo
bizga abadiy hayot berdi va bu abadiy hayotning manbai Xudoning O‘g‘li Isodir. 12 Kim
Xudoning O‘g‘liga ega bo‘lsa, hayotga egadir. Xudoning O‘g‘liga ega bo‘lmagan odamda

esa hayot yoʻq.

Xotima

13 Ey Xudoning Oʻgʻliga ishonganlar, sizlar abadiy hayotga egasizlar. Shuni bilib
olinglar deb, sizlarga bu maktubni yozyapman. 14 Biz abadiy hayotga ega boʻlganimiz
uchun Xudoning huzurida dadil boʻlamiz, chunki Xudoning irodasiga koʻra, nimani
soʻrasak, U bizga quloq tutishini bilamiz. 15 Xudo ibodatlarimizga quloq tutar ekan,
demak, ibodatlarimizga javob olganimizga toʻliq ishonch hosil qilamiz.
16 Agar biror kishi birodarining gunoh qilayotganini koʻrsa–yu, bu gunoh abadiy
oʻlimga* sabab boʻlmasa, u uchun ibodat qilsin. Uning ibodati tufayli Xudo gunoh qilgan
odamga hayot bagʻishlaydi. Men gunohi abadiy oʻlimga sabab boʻlmaydigan odamni
nazarda tutyapman. Abadiy oʻlimga sabab boʻladigan gunoh* ham bor. Bunday gunohga
qoʻl urgan odamlar uchun ibodat qilinglar, deb aytmayapman. 17 Har qanday yomonlik
gunohdir, ammo hamma gunoh ham abadiy oʻlimga sabab boʻlavermaydi.
18 Xudoning farzandi boʻlgan odam gunoh qilmasligini bilamiz, chunki Xudo* bunday
odamni Oʻz panohida asraydi*. Yovuz shayton unga biror zarar yetkaza olmaydi. 19 Biz
Xudodan ekanimizni, butun dunyo esa yovuz shayton changalida ekanini bilamiz.
20 Yana shuni bilamizki, Xudoning Oʻgʻli kelib, haq Xudoni tanib–bilishimiz uchun bizga
aql–idrok berdi. Biz Iso Masih bilan birga yashar ekanmiz, haq Xudo bilan ham birga
yashaymiz. Iso Masih haq Xudodir va abadiy hayot manbaidir.
21 Aziz bolalarim*, oʻzlaringizni butlardan* saqlanglar*.

IZOHLAR

Masih — 2:22 izohiga qarang.

…Xudoning O‘g‘li inson bo‘lib kelmagan… — 5:6 ning birinchi izohiga qarang.

1:1 *Hayot kalomi* — Iso Masihga ishora (Yuhanno 1:4, 3:16, 10:10, 14:6 ga qarang).

1:1 *Ko‘rib eshitganlarimizni…ko‘rganlarimizni…* — Yuhanno 1:14 ga qarang.

1:4 *qalbimiz* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *qalbingiz*.

2:1 *Aziz bolalarim* — Yuhannoning o‘z farzandlari emas. Yuhanno ularning ruhiy yo‘lboshchisi bo‘lib, aziz imonlilarga shunday murojaat qilgan.

2:10 *…hech qanday narsa uning qulashiga sabab bo‘la olmaydi* — yana Zabur 118:165 ga qarang.

2:13 *boshidan ayon bo‘lgan Masih* — 1:1 ga va o‘sha oyatning izohlariga qarang.

2:18 *dunyoning so‘nggi damlari* — Iso Masih tirilgandan keyingi davrga ishora. Yana Ibroniylar 1:2, 9:26 ga qarang.

2:18 *Masihning dushmani* — yana 2 Salonikaliklar 2:3-12, Vahiy 13:1-17 ga qarang.

2:20 *Iso Masih* — yunoncha matnda *muqaddas Zot*. Ba’zi olimlar bu iborani Otamiz Xudoga ishora deb taxmin qiladilar.

2:20 *Muqaddas Ruh* — yunoncha matnda *moylanish*, bu o‘rinda masihiylarga Muqaddas Ruh berilganiga ishora (shu bobning 27–oyatida ham bor). Ba’zi olimlarning taxmini bo‘yicha, bu o‘rinda ularning Xushxabarni qabul qilganlari nazarda tutilgan.

2:22 *Masih* — bu unvonni yahudiylar kelajakda ularni dushmanlaridan qutqaradigan va butun yer yuzidagi xalqlar ustidan hukmronlik qiladigan insonga nisbatan ishlatganlar. Eski Ahdda Masihning qiladigan ishlari haqida bashoratlar yozilgan. Yangi Ahdga ko‘ra Rabbimiz Iso o‘sha Masihdir. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi MASIH so‘ziga va XUDONING O‘G‘LI iborasiga qarang.

2:25 *Masih* — yunoncha matnda *U*.

2:27 *…Iso Masihdan…* — yunoncha matnda *…Undan…*. Shu bobning 20–oyatiga berilgan birinchi izohga qarang.

3:7 *Aziz bolalarim* — 2:1 izohiga qarang.

3:9 *Xudoning hayotbaxsh kuchi* — yunoncha matnda *Xudoning urug‘i*, bu o‘rinda Muqaddas Ruhga ishora bo‘lishi mumkin. Ba’zi olimlarning taxmini bo‘yicha, *Xudoning urug‘i* iborasi Xudoning kalomiga ishora qiladi (1 Butrus 1:23 ga qarang).

3:12 *Qobil* — Ibtido 4:3-8 ga qarang.

4:2 *Iso Masih inson bo‘lib kelgani* — 5:6 ning birinchi izohiga qarang.

4:3 *Masihning dushmani* — 2:18-22 oyatlarga qarang. Yana 2 Salonikaliklar 2:3-12, Vahiy 13:1-17 ga qarang.

4:4 *aziz bolalarim* — 2:1 izohiga qarang.

4:19 *sevamiz* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *Xudoni sevamiz*, ammo bu o‘rinda Yuhanno odamlarning Xudoga bo‘lgan sevgisi ularning bir–birlariga bo‘lgan

mehr–muhabbati orqali namoyon bo‘lishiga urg‘u beradi.

5:1 *Masih* — 2:22 izohiga qarang.

5:6 *U suvga cho‘mish bilan cheklanibgina qolmay…* — Yuhanno bu o‘rinda Isoning Masih sifatida, ya’ni Xudo O‘g‘li sifatida suvga cho‘mdirilganiga va xochga mixlanganiga urg‘u beradi. Yuhannoning bundan maqsadi mana shu haqiqatga qarshi chiqqan soxta ustozlarni fosh qilish edi (2:22, 4:1-3 ga qarang). Chamasi, ular Iso suvga cho‘mdirilganidan keyingina Unga Xudoning O‘g‘li kirib kelgan, xochga mixlanishidan oldin esa chiqib ketgan, deb ishonganlar. Ularning bu tushunchalari Iso Masih haqidagi haqiqatga zid edi. Insoniyatni gunohdan poklash uchun Masih, ya’ni Xudoning O‘g‘li bo‘lgan Iso xochda o‘lgan (shu bobning 5–oyatiga va 1:1-3, 2:1-2, 4:10 ga qarang).

5:6 *Iso Masih kelganda…O‘z qonini to‘kdi* — yunoncha matnda *Iso Masih suv va qon bilan keldi. U faqat suv bilan emas, suv va qon bilan keldi*. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *Iso Masih suv, qon va Ruh bilan keldi…*.

5:6 *Muqaddas Ruhning O‘zi bu haqda guvohlik beryapti…* — 2:20, 27 ga va Yuhanno 1:32-34 ga qarang.

5:7-8 *…bunga uchta guvoh bor: [8] Ruh, suv va qon* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *osmonda bunga uchta guvoh bor: Ota, Kalom va Muqaddas Ruh. Bu uchovi bir. [8] Yerda ham bunga uchta guvoh bor: Ruh, suv va qon*.

5:16 *abadiy o‘lim* — yunoncha matnda *o‘lim*. Bu oyatda *o‘lim* so‘zi nafaqat jismoniy o‘limga, balki abadiy jazoga ham ishora qilishi mumkin (2 Salonikaliklar 1:7-9, Vahiy 20:11-15 ga qarang). Yana bu oyatga berilgan keyingi izohga qarang.

5:16 *Abadiy o‘limga sabab bo‘ladigan gunoh* — jamoatni tark etgan soxta ustozlarning gunohiga ishora. Ularning gunohi Iso Masih haqidagi haqiqiy ta’limotga ishonmaslik edi (shu bobning 5, 10-12–oyatlariga va 2:18-26, 3:23, 4:1-3 ga qarang). Yana Matto 12:31 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

5:18 *Xudo* — yoki *Xudoning O‘g‘li*.

5:18 *…chunki Xudo bunday odamni O‘z panohida asraydi* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *chunki Xudoning farzandi bo‘lgan odam o‘zini gunohdan asraydi*.

5:21 *Aziz bolalarim* — 2:1 izohiga qarang.

5:21 *butlar* — ularni to‘g‘ri yo‘ldan ozdiradigan soxta ta’limotlarga ramziy usulda ishora bo‘lishi mumkin (2:18-26, 4:1-3 oyatlarga va shu bobning 6–oyatiga berilgan birinchi izohga qarang).

5:21 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida quyidagi so‘z oyatga qo‘shimcha qilingan: *omin*.

YUHANNONING
IKKINCHI MAKTUBI

Kirish

Mazkur maktub muallifi Iso Masihning shogirdi Yuhannodir. Yuhanno bu maktubini “Xudo tanlagan aziz xonim bilan uning bolalariga” deb yo‘llagan bo‘lsa–da, bu yerda u imonlilar jamoatini va jamoat a’zolarini nazarda tutgan bo‘lsa kerak.

Muallif bu maktubi orqali imonlilarni bir–biriga mehr–oqibatli bo‘lishga, Iso Masihga bo‘lgan imonini mahkam tutishga va soxta payg‘ambarlardan ehtiyot bo‘lishga chaqiradi. Chunki bunday “payg‘ambarlar” Masih*, ya’ni Xudoning O‘g‘li inson bo‘lib kelmagan*, deb aytishgan. Muallif imonli birodarlarini tez orada ko‘rish istagi borligini izhor etib, maktubini yakunlaydi.

Yuhannoning ikkinchi maktubi juda qisqa bo‘lgani uchun boblarga bo‘linmagan.

1–BOB

Duoyi salom

1 Xudo tanlab olgan aziz xonim va uning bolalariga* men — oqsoqoldan* salom! Men
sizlarni chin dildan yaxshi ko‘raman, mengina emas, haqiqatni bilib olganlarning
hammasi sizlarni yaxshi ko‘radi. 2 Bu sevgiga dilimizdan joy olgan va to abad biz bilan
bo‘ladigan haqiqat asos bo‘ldi.

3 Biz haqiqat va sevgi bo‘yicha yashar ekanmiz, Otamiz Xudo va Otamizning O‘g‘li Iso
Masih beradigan inoyat, marhamat va tinchlik bizga* doim yor bo‘ladi.

Haqiqat va mehr–muhabbat

4 Hurmatli xonim, farzandlaringizning bir nechtasi Otamiz Xudoning bizga bergan
amrini* bajarib, haqiqat yo‘lida yurayotgan ekanlar. Men bundan g‘oyat xursand
bo‘ldim.

5 Sizdan bir iltimosim bor, bir–birimizni yaxshi ko‘raylik. Sizga yangi amrni
yozayotganim yo‘q, bu amr bizga boshidan berilgan. 6 Sevgi — biz Xudoning amrlariga
amal qilishimizdan iborat. Sizlar bu amrni boshidan eshitgansizlar va unga amal qilib
yashashingiz kerak.

7 Bularni yodingizda tutinglar, chunki dunyoda yolg‘onchilar ko‘payib ketgan. Iso
Masih inson bo‘lib kelganini ular tan olmaydilar*. Ularning har biri yolg‘onchi va
Masihning dushmanidir!* 8 Shunday ekan, ogoh bo‘linglar! Mukofotingizni to‘liq olish
uchun Masihga bo‘lgan haqiqiy imoningizni* mahkam tutinglar. 9 Masih ta’limotini ortda
qoldirib, o‘zicha “jadallab ketgan” odamda Xudo yo‘q. Masih ta’limoti bo‘yicha yashagan
odamda esa Ota ham, O‘g‘il ham bor. 10 Agar biror kishi oldingizga kelib, sizlarga
boshqacha ta’limotni o‘rgatsa, uni uyingizga kiritmanglar, taklif ham qilmanglar. 11 Agar
uni taklif qiladigan bo‘lsangiz, uning yomon ishlariga sherik bo‘lgan hisoblanasiz.

Xayrlashuv

12 Sizlarga aytadigan gapim ko‘p, ammo bularni siyoh bilan qog‘ozga yozishni
istamadim. Undan ko‘ra, oldingizga borib, sizlar bilan yuzma–yuz gaplashaman, deb
umid qilaman. Shunda shodligimiz* tugal bo‘ladi.

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

13 Xudo tanlab olgan aziz singlingizning bolalari* sizlarga salom yo‘llashyapti*.

IZOHLAR

Masih — bu unvonni yahudiylar kelajakda ularni dushmanlaridan qutqaradigan va butun yer yuzidagi xalqlar ustidan hukmronlik qiladigan insonga nisbatan ishlatganlar. Eski Ahdda Masihning qiladigan ishlari haqida bashoratlar yozilgan. Yangi Ahdga koʻra Rabbimiz Iso oʻsha Masihdir. Toʻliqroq maʼlumotga ega boʻlish uchun lugʻatdagi MASIH soʻziga va XUDONING OʻGʻLI iborasiga qarang.

...Xudoning Oʻgʻli inson boʻlib kelmagan... — 1 Yuhanno 5:6 ning birinchi izohiga qarang.

1:1 *Xudo tanlab olgan aziz xonim va uning bolalari* — maʼlum bir imonlilar jamoati va jamoat aʼzolari nazarda tutilgan boʻlsa kerak.

1:1 *oqsoqol* — yaʼni havoriy Yuhanno.

1:3 *Biz...biz* — yunoncha matndan. Baʼzi yunon qoʻlyozmalarida *Sizlar...sizlar*.

1:4 *Otamiz Xudoning bizga bergan amri* — 1 Yuhanno 3:23 ga qarang.

1:7 *Iso Masih inson boʻlib kelganini ular tan olmaydilar* — 1 Yuhanno 2:22, 4:1-3 ga va 1 Yuhanno 5:6 ning birinchi izohiga qarang. Yana 1 Yuhanno 4:10, 5:5 ga qarang.

1:7 *Masihning dushmani* — 1 Yuhanno 2:18, 4:3 ga qarang.

1:8 *Masihga boʻlgan haqiqiy imoningiz* — yunoncha matndan soʻzma–soʻz tarjimasi *biz bajargan ish*, bu oʻrinda ularning Iso Masihga boʻlgan imoni nazarda tutilgan.

1:12 *shodligimiz* — yunoncha matndan. Baʼzi yunon qoʻlyozmalarida *shodligingiz*.

1:13 *Xudo tanlab olgan aziz singlingizning bolalari* — bu oʻrinda imonlilar jamoati nazarda tutilgan boʻlsa kerak. Ayniqsa, muallif qaysi jamoatda boʻlgan boʻlsa, oʻsha jamoatga ishora boʻlishi mumkin.

1:13 Yunoncha matndan. Baʼzi yunon qoʻlyozmalarida quyidagi soʻz oyatga qoʻshimcha qilingan: *omin*.

YUHANNONING
UCHINCHI MAKTUBI

Kirish

Mazkur maktub muallifi Iso Masihning shogirdi Yuhannodir. Yuhanno bu maktubini imonlilar jamoatining yetakchisi Gayusga yo‘llagan.

Mazkur maktubda muallif imonli birodarlarini bir–birlariga nisbatan mehr–oqibatli bo‘lishga undaydi. Yuhanno Gayusning jamoatidan olgan xabarga ko‘ra, Diotrefes ismli betavfiq bir odam jamoat boshqaruvini o‘z zimmasiga olib, Yuhanno yuborgan muallimlarni qabul qilmagan ekan. Ularga mehmondo‘stlik ko‘rsatgan birodarlarni esa jamoatdan quvib chiqargan ekan. Yuhanno Diotrefesning bu qilmishlarini qoralaydi, Gayusni esa maqtab, safardagi muallimlarga ko‘rsatgan mehmondo‘stligi uchun unga o‘z minnatdorchiligini bildiradi.

Yuhannoning uchinchi maktubi juda qisqa bo‘lgani uchun boblarga bo‘linmagan.

1–BOB

Duoyi salom

1 Chin ko‘ngildan yaxshi ko‘radigan aziz birodarim Gayusga men — oqsoqoldan* salom!

2 Aziz do‘stim, hamma ishlaringga Xudodan rivoj tilayman. Tanang, ruhing singari, sog‘–salomat bo‘lsin.

Gayusning maqtovga loyiq mehmondo‘stligi

3 Har safar birodarlarimiz kelib, sening haqiqatga sodiq qolganingni va haqiqat bo‘yicha yashayotganingni aytishganda, men g‘oyat xursand bo‘laman. 4 Men uchun farzandlarimning* haqiqat bo‘yicha yashayotganlarini eshitishdan kattaroq xursandchilik yo‘q.

5 Aziz do‘stim, sen birodarlarimizga, hatto o‘zing tanimaganlarga ham, doim sadoqat bilan yordam berib kelyapsan. 6 Ular sening mehribonliging to‘g‘risida imonlilar jamoatiga aytib yurishibdi. Bu ishingni davom ettiraver, Xudoga munosib tarzda safardagi birodarlarga yordam ber. 7 Axir, ular Masih nomi uchun yo‘lga chiqqanlar. Imonsizlardan* hech qanday yordam olmaslikka qaror qilganlar. 8 Biz bunday odamlarni qo‘llab–quvvatlashimiz kerak, shunda haqiqatni e’lon qilishda ularga hamkor bo‘lamiz.

Diotrefes va Demitrus

9 Men imonlilar jamoatiga* bir maktub yozgan edim. Ammo ularning oralarida o‘zini katta tutayotgan Diotrefes gaplarimizga e’tibor bermayapti. 10 Agar borsam, uning qilmishlarini fosh etaman. U biz haqimizda yomon gaplar tarqatib, tuhmat qilib yuribdi. Bu bilan ham kifoyalanmay, birodarlarni qabul qilmayapti, qabul qilmoqchi bo‘lganlarga to‘sqinlik qilib, ularni hatto jamoatdan quvib chiqaryapti.

11 Aziz birodarim, sen yomonlikka emas, yaxshilikka taqlid qil. Yaxshilik qiluvchi odam Xudodandir. Yomonlik qiluvchi esa Xudoni ko‘rmagan.

12 Demitrus* haqida esa hamma yaxshi gapirmoqda, uning hayotida va ta’limotida

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

aks etgan haqiqatning oʻzi ham u tomondadir. Biz ham u haqda yaxshi fikrdamiz, gapimiz toʻgʻri ekanligini oʻzing bilasan.

Xayrlashuv

13 Senga aytadigan gapim koʻp, ammo ularni siyoh bilan qogʻozga yozishni
istamadim. 14 Undan koʻra, yaqin orada oʻzing bilan yuzma–yuz koʻrishib gaplashaman
degan umiddaman. 15 Tinch–omon boʻlgin. Doʻstlarimiz senga salom yoʻllayaptilar. U
yerdagi doʻstlarimga ham nomma–nom salom aytib qoʻy.

IZOHLAR

1:1 *oqsoqol* — ya’ni havoriy Yuhanno.
1:4 *farzandlarim* — Yuhannoning o‘z farzandlari emas. Yuhanno ularning ruhiy yo‘lboshchisi bo‘lib, aziz imonlilarga shunday murojaat qilgan.
1:7 *Imonsizlar* — ulardan Xushxabarni eshitadigan odamlar.
1:9 *imonlilar jamoati* — Gayus va Diotrefes a’zo bo‘lgan jamoat nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin.
1:12 *Demitrus* — Xushxabarni yoyish maqsadida safarga chiqqan, ushbu maktubni Gayusga olib borayotgan odam bo‘lishi mumkin.

YAHUDONING
MAKTUBI

Kirish

Mazkur maktub muallifi Iso Masihning va Yoqubning ukasi Yahudodir. Yoqub Quddusdagi jamoatning yetakchisi edi. Bu maktub mazmun jihatidan Butrusning ikkinchi maktubiga o‘xshash bo‘lib, maqsadi — masihiylarning orasiga kirib olgan soxta ustozlarni fosh qilishdan iborat. Bu soxta ustozlar Xudoning inoyati haqidagi xabarni buzib o‘rgatishardi, gunoh qilishga haqqimiz bor, deya faqat nafsini qondirib yashashardi.

Maktub qaysi shahardagi masihiylar jamoatiga yozilgani aniq emas. Ammo ma’nosi ochiq–oydin ifoda qilingan bo‘lib, masihiylarni soxta ustozlardan hazar qilishga, ularning ta’limotiga qarshi chiqishga undaydi. Bundan tashqari, imonda o‘sib–ulg‘ayishga, odamlarga mehr–oqibatli va rahmdil bo‘lishga chaqiradi.

Yahudoning maktubi juda qisqa bo‘lgani uchun boblarga bo‘linmagan.

1–BOB

Duoyi salom

1 Iso Masihning quli va Yoqubning ukasi men — Yahudodan*, Xudoning xalqi
bo‘lishga da’vat qilingan birodarlarga salom! Otamiz Xudo sizlarni Iso Masih kelishiga
qadar* O‘z mehr–muhabbati panohida omon saqlaydi*. 2 Xudo sizlarga cheksiz
marhamat, tinchlik va mehr–oqibat ato qilsin.

Soxta ustozlardan ehtiyot bo‘linglar

3 Azizlarim, hammamiz birgalikda bahra olayotgan najotimiz haqida men sizlarga
yozishni juda xohlagan edim. Ammo buning o‘rniga sizlarni: “Imonimizni himoya
qilaylik”, deb undamoqchiman. Axir, Xudo bu o‘zgarmas imonni aziz xalqiga to abad
topshirgan. 4 Gap shundaki, ba’zi betavfiq odamlar orangizga o‘g‘rincha kirib olibdilar.
Ular o‘z axloqsizligini oqlash uchun Xudoyimizning inoyati haqidagi xabarni buzib
o‘rgatyaptilar. Yagona Xo‘jayinimiz* va Rabbimiz Iso Masihni rad etyaptilar. O‘sha
betavfiqlarning jazosi azaldanoq yozilgandir*.

Soxta ustozlarning jazosi

5 Bunday odamlarning qismati nima bo‘lishini o‘zlaringiz yaxshi bilasizlar. Bularni
sizlarga yana bir bor eslatmoqchiman: Egamiz O‘z xalqi Isroilni Misrdagi qullikdan
qutqargandi. Keyinroq esa ishonmagan odamlarni halok qilgan edi*. 6 Shuningdek, o‘z
mavqeiga yarasha ish tutmay, makonini tashlab ketgan farishtalarni* ham Egamiz
qorong‘i zimistonga abadiy zanjirband qilgandi. Ularni buyuk qiyomat kunigacha o‘sha
yerda saqlab turibdi. 7 O‘sha farishtalar singari, Sado‘m va G‘amo‘ra shaharlari* aholisi,
shuningdek, bular atrofidagi barcha shaharlar aholisi ham notabiiy buzuq ehtiroslarga
va shahvoniy hirsga berilgan edilar. Oqibatda esa abadiy o‘tda kuyib, o‘z jazosini
olganlar. Ularning qismati hammaga saboq bo‘ldi.

8 Shunga qaramay, oramizga kirib olgan betavfiqlar o‘z vahiylariga tayanib,

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

badanlarini harom etyaptilar. Xudoning hokimiyatini rad etib, samoviy mavjudotlarni haqorat qilyaptilar*. 9 Esingizda bo‘lsa, bosh farishta Mikoyil iblis bilan Musoning jasadi borasida bahslashgandi*. Ammo Mikoyil shunda ham iblisni haqoratlab, hukm qilishga jur’at etmadi, u Xudoning hokimiyatini e’zozlagan holda, faqat: “Egamning O‘zi seni hukm qilsin”, — deb aytgan edi, xolos. 10 O‘sha betavfiqlar esa Xudoning qonunini tushunmaydilar, tushunmaganlari uchun ham o‘sha qonunni mensimaydilar. Ular o‘zlarini ongsiz hayvonlarday tutib, ehtiroslarga berilib yashashdan boshqa hech narsani bilmaydilar. Buning natijasida halokatga yo‘liqadilar.

11 Bu soxta ustozlarning holiga voy! Axir, ular Qobilning* izidan boryaptilar. Pulga berilib, boshqalarni Balomga* o‘xshab yo‘ldan uryaptilar. Ko‘rax* singari isyon ko‘tarib, halokatga yuz tutyaptilar.

12 Bu odamlar jamoatingizni ham halokatga yo‘liqtiradilar*. Ular faqat o‘zini boqadigan cho‘ponlarga o‘xshaydi. Sizlar taom yeyish uchun birga yig‘ilganingizda, Rabbimiz Isoni xotirlash uchun non sindirganingizda, ular uyalmay, ochko‘zlik bilan qorinlarini to‘ydiradilar. Ular shamol haydagan yomg‘irsiz bulutlarga o‘xshaydilar, mavsumida meva bermaydigan daraxtlar kabidirlar. Bu ustozlar qo‘porib tashlangan daraxtlarday o‘likdirlar. 13 Ular dengizning vahshiy to‘lqinlari kabi jo‘sh uradi*, sharmandali ishlarini iflos ko‘pikday yuzaga chiqarib, atrofga sochadi. Ular tayyorlab qo‘yilgan qop–qorong‘i zulmatga adashgan yulduzlarday* abadiy g‘arq bo‘lishadi.

14 Odam Atodan boshlab, yettinchi* avlodda yashagan Xano‘x* bu odamlar haqida shunday bashorat qilgan*:

> “Rabbimiz ming–minglab muqaddas malaklari bilan keladi.
> 15 U jamiki odamzodni hukm qiladi.
> Gunohga botgan betavfiqlarni mahkum etadi,
> Yaramas qilmishlari uchun,
> Uni haqoratlaganlari uchun
> Betavfiqlarni jazolaydi.”

16 Oramizga kirib olgan bu betavfiqlar, qachon qaramang, ming‘irlab nolib yuradilar. Ular faqat o‘z nafsini o‘ylab ish tutadilar, maqtanadilar, o‘z manfaatini ko‘zlab, tilyog‘lamalik qiladilar.

Xudoga sodiq qolinglar

17 Sizlar esa, ey azizlarim, Rabbimiz Iso Masihning havoriylari aytgan bashoratlarni* esingizda tutinglar. 18 Axir, ular sizlarni quyidagicha ogohlantirishgan: “Oxirgi zamonda shunday odamlar bo‘ladiki, ular faqat o‘z nafsini qondirish bilan ovora bo‘lishadi, haqiqatga itoat qiluvchilarni mazax qilishadi.” 19 Muqaddas Ruhga ega bo‘lmagan bu betavfiq ustozlar inson tabiatiga qul bo‘lib yashaydilar, orangizga nizo urug‘ini sochadilar.

20 Sizlar esa, ey azizlarim, qutlug‘ imoningizga tayanib hayot kechiringlar. Muqaddas Ruh ilhomi bilan ibodat qilinglar. 21 Xudoning sevgisi panohida bo‘lib, o‘zingizni asranglar. Rabbimiz Iso Masihning kelishini kutinglar. U kelib, O‘z marhamati tufayli bizga abadiy hayot ato qiladi. 22 Ikkilanuvchi birodarlaringizga rahmdil bo‘lib*, 23 ularni qutqaringlar. Ana shunda sizlar bunday odamlarni qiyomat alangasidan chiqarib olganday bo‘lasizlar. O‘z bilganidan qaytmaganlarga esa achininglar*. Biroq ehtiyot

bo‘linglar, ularning qabih qilmishlaridan hazar qilinglar. Ularning hatto kiyimi ham sizlar uchun harom va jirkanchlidir.

So‘nggi duo

24 Imondan qaytib ketishdan sizlarni faqatgina Xudo asray oladi. U sizlarni beg‘ubor
va shod–xurram qilib, O‘zining ulug‘vor huzuriga olib kirishga qodir. 25 Bizni Iso Masih
orqali qutqargan yakkayu yagona najotkorimiz Xudoga* hamdlar bo‘lsin! Azaldan, hozir
va to abad salobatli, kuch–qudratli, saltanat Sohibi bo‘lgan Xudoga shon–sharaflar
bo‘lsin! Omin.

IZOHLAR

1:1 *Yoqubning ukasi men — Yahudo* — Quddusdagi jamoatning yetakchisi bo‘lgan Yoqubning va Isoning ukasi (Mark 6:3, Havoriylar 15:13, 21:18, Galatiyaliklar 1:18-19 ga qarang).

1:1 *...Iso Masih kelishiga qadar...* — yoki *...Iso Masih orqali....*

1:1 *Otamiz Xudo sizlarni...O‘z mehr–muhabbati panohida omon saqlaydi* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *Otamiz Xudo sizlarni...muqaddas qilib, O‘z panohida omon saqlaydi*.

1:4 *Xo‘jayinimiz* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *Egamiz Xudo*.

1:4 *azaldanoq yozilgan* — shu bobning 5-16–oyatlarida Yahudo betavfiqlarning qanday jazolanishi haqida misollar keltirgan.

1:5 *...ishonmagan odamlarni halok qilgan edi* — Sahroda 14:26-38 ga qarang.

1:6 *o‘z mavqeiga yarasha ish tutmay, makonini tashlab ketgan farishtalar* — qilmishlari uchun jazolangan ilohiy zotlarga ishora bo‘lishi mumkin, bu zotlar haqida Ibtido 6:1-4 da yozilgan. Yana 1 Butrus 3:19-20, 2 Butrus 2:4 ga qarang.

1:7 *Sado‘m va G‘amo‘ra shaharlari* — aholisining o‘ta buzuqligi oqibatida Egamiz vayron qilgan ikkita shahar (Ibtido 18:16-19:28 ga qarang).

1:8 *...samoviy mavjudotlarni haqorat qilyaptilar* — ularning mag‘rurligini va takabburligini namoyon qiladigan xulq–atvorlari. Yana 2 Butrus 2:10-11 ga qarang.

1:9 *...Mikoyil iblis bilan Musoning jasadi borasida bahslashgandi* — Yahudo bu o‘rinda yahudiylarga yaxshi ma’lum bo‘lgan afsonani nazarda tutgan. Bu afsona yahudiylarning “Musoning jannatga ko‘tarilishi” deb nomlangan qadimgi kitobidan olingan.

1:11 *Qobil* — Ibtido 4:3-8 ga qarang. Bu oyatda aytib o‘tilgan odamlar axloqi buzuq bo‘lib, boshqalarni ham gunohga yetaklagani bilan tanilgan.

1:11 *Balom* — Mo‘ab va Midiyon xalqlari bilan qilgan hamkorligi uchun Isroil xalqining dushmani hisoblangan edi (Sahroda 25:1-5, 16-18, 31:16, Yoshua 13:22, 24:9-10, Vahiy 2:14 ga qarang).

1:11 *Ko‘rax* — Sahroda 16:1-35 ga qarang.

1:12 *Bu odamlar jamoatingizni ham halokatga yo‘liqtiradilar* — Yahudo bu o‘rinda dengiz suvining ostidagi ko‘zga ko‘rinmaydigan qoyatoshlarni bildiradigan yunoncha so‘zni ishlatgan. Kemalar o‘sha qoyatoshlarga urilib, halokatga uchrar edi. Bu timsol jamoatni halokatga yo‘liqtiradigan odamlarga rosa mos kelardi. Ba’zi olimlarning taxmini bo‘yicha esa bu yunoncha so‘z kiyim–kechakdagi dog‘ni anglatadi. Shuning uchun ularning nazarida yuqoridagi gapni *Bu odamlar jamoatingizga dog‘ tushiradi* deb tarjima qilsa ham bo‘ladi.

1:13 *Ular dengizning vahshiy to‘lqinlari kabi jo‘sh uradi...* — Ishayo 57:20-21 ga qarang.

1:13 *adashgan yulduzlar* — yovuzlikka yuz tutgan farishtalarga ramziy ma’noda ishora qilingan bo‘lishi mumkin.

1:14 *yettinchi* — barkamollik timsoli, Xano‘xning so‘zlari haqiqat ekanligiga urg‘u berish

maqsadida ishlatilgan bo‘lishi mumkin.

1:14 *Xano‘x* — sharq yozma adabiyotida Idris payg‘ambar deb e’tirof etilgan. Ibtido 5:18-24 ga qarang.

1:14 *…Xano‘x bu odamlar haqida shunday bashorat qilgan…* — mazkur oyatdagi bashorat so‘zlari yahudiylar orasida keng tarqalgan “Xano‘xning kitobi”dan olingan. Mazkur kitobdagi hikoyalar yahudiylarga ham, masihiylarga ham ma’lum bo‘lgan.

1:17 *aytgan bashoratlar* — misol uchun, Havoriylar 20:29, 2 Butrus 2:1-3, 1 Timo‘tiy 4:1, 2 Timo‘tiy 3:1-5 ga qarang.

1:22 *Ikkilanuvchi birodarlaringizga rahmdil bo‘lib…* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *Mulohaza bilan ba’zi birodarlaringizga rahmdil bo‘lib…*.

1:23 *…qaytmaganlarga esa achininglar* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *qaytmaganlarni esa fosh qilinglar*.

1:25 *najotkorimiz Xudo* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *donishmand najotkorimiz Xudo*.

PAVLUSNING
RIMLIKLARGA
MAKTUBI

Kirish

Mazkur maktub muallifi havoriy Pavlusdir. Pavlus bu maktubini Rimdagi jamoatga yozgan. Rimdagi jamoat yahudiy hamda g‘ayriyahudiy bo‘lgan masihiylardan iborat edi. Pavlus Rimga borishga tayyorgarlik ko‘rayotgan edi. Uning maktubni yozishdan maqsadi o‘zini Rimdagi jamoatga tanishtirish, ularga Iso Masih haqidagi ta’limotni tushuntirish va ularning yordamida Ispaniyada o‘z xizmatini davom ettirish edi. Mazkur maktubda Pavlus Xushxabarni to‘liq va har tomonlama sharhlaydi. Maktubning mohiyati Pavlusning quyidagi so‘zlarida o‘z ifodasini topgan: “Bu Xushxabarda oshkor qilinganki, Xudo insonlarni imon orqali, ha, faqatgina imon orqali oqlaydi, chunki Muqaddas bitiklarda: «Solih inson imon tufayli hayotga ega bo‘ladi», deb yozilgan.” (1:17)

Maktubning dastlabki qismida (1-4–boblar) Pavlus bu ta’limotini batafsil tushuntiradi. Har bir inson, yahudiy yoki g‘ayriyahudiy bo‘lishidan qat’i nazar, gunohkor bandadir, shu sababdan hamma Xudo bilan yarashishi kerak. Bunga esa savob ishlar, dindorlik yoki Xudoning qonuniga amal qilish orqali emas, balki Iso Masihga bo‘lgan imon orqaligina erishsa bo‘ladi.

Maktub davomida (5-8–boblar) Pavlus Musoning qonuni va Muqaddas Ruh borasida so‘z yuritadi. Nima maqsadda Xudo qonunni berganini tushuntirib, imonli kishining hayotida amal qiladigan Muqaddas Ruhning qudrati haqida yozadi. Pavlus maktubining bu qismida Masihga imon keltirgan insonning yangi hayotini tasvirlaydi. Bu yangi hayotning manbai Xudo bilan o‘rnatilgan munosabat bo‘ladi. Yangi hayotga qadam qo‘ygan bunday inson Xudo bilan uyg‘unlikda yashaydi va u Muqaddas Ruhning yordamida gunoh kuchidan ozod bo‘ladi.

So‘ng Pavlus e’tiborini Xudoning najot rejasiga qaratadi (9-11–boblar). Bu rejada u yahudiylar va g‘ayriyahudiylarning o‘ziga yarasha tutgan o‘rni borligini aytib o‘tadi. Ilohiy rejaga ko‘ra, butun insoniyat najot topib, Xudoning Masih orqali bergan inoyatidan bahramand bo‘lishi uchun yahudiylar Masihni rad etishlari kerak edi. Lekin muallifning ta’kidlashicha, vaqti kelib yahudiylar ham Masihni tan olishadi.

Maktubning so‘nggi qismida (12-16–boblar) Pavlus masihiylarga kundalik turmushga oid nasihatlar beradi. Ularni mehr–oqibatli bo‘lishga, Xudoga manzur hayot kechirishga chaqiradi. Shuningdek, Xudoga xizmat qilish, hukumatga bo‘ysunish, insoniyat oldidagi majburiyatlar va vijdon masalasi kabi mavzularni yoritadi. Maktub duoyi salomlar bilan yakunlanadi.

1–BOB

Salom

[1] Men — Iso Masihning quli bo‘lgan Pavlusdan Rimdagi birodarlarimga salom! Men havoriylikka da’vat etilganman, Xudoning Xushxabarini yoyish uchun tanlanganman.

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

2 Muqaddas bitiklarda* yozilganday, Xudo bu Xushxabarni beraman deb, O‘z
payg‘ambarlari orqali va’da bergan edi. 3 Bu Xushxabar Xudoning O‘g‘li haqidadir. U
jisman Dovud zurriyotidan kelib chiqqan edi. 4 Xudoning O‘zi Rabbimiz Iso Masihni
o‘likdan tiriltirdi. Shu orqali Muqaddas Ruhning kuchiga to‘la bo‘lgan Iso Masih
Xudoning O‘g‘li ekanligi isbotlandi*. 5 Ana shu Iso Masih orqali Xudo menga* inoyat
ko‘rsatib, havoriy bo‘lish vazifasini berdi. Toki barcha xalqlar Xudoga ishonib, itoat
etsinlar, shunda Iso Masihning nomi ulug‘lanadi. 6 Sizlar ham, o‘sha xalqlar qatori, Iso
Masihga tegishli bo‘lishga da’vat etilgansizlar.

7 Men ushbu maktubimni sizlarga — Rimdagi birodarlarimga yozyapman. Xudo
sizlarning hammangizni yaxshi ko‘rib, O‘zining aziz xalqi bo‘lishga chorlagan. Otamiz
Xudo va Rabbimiz Iso Masih sizlarga inoyat va tinchlik ato qilsin.

Pavlusning Rimga borish istagi

8 Avvalambor, Iso Masih sharofati ila barchangiz uchun Xudoyimga shukur qilaman,
chunki butun dunyo sizlarning imoningiz haqida gapiryapti. 9 Xudoning O‘g‘li haqidagi
Xushxabarni yoyar ekanman, chin qalbimdan Xudoga xizmat qilaman. Xudo shohid, men
doim sizlar uchun ibodat qilaman. 10 Ibodatlarimda, doim Xudodan: “Agar irodang
bo‘lsa, imkon ber, men borib, Rimdagi birodarlarimni ko‘rib kelay”, deb so‘rayman.
11 Sizlarni rosa ko‘rgim kelyapti, chunki sizlar bilan ruhiy in’omlarni baham ko‘rsam,
deyman, shunda sizlar imonda yanada mustahkamroq bo‘lardingiz. 12 To‘g‘rirog‘i,
ko‘rishganimizda, bir–birimizning imonimizdan dalda olsak, deyman.

13 Birodarlar, bilib qo‘yinglar, men ko‘p marta sizlarning oldingizga borishni
rejalashtirgandim, ammo hech yo‘l ochilmadi. Boshqa xalqlar orasida Xushxabarni aytib,
yaxshi natijalarga erishdim. Rimda ham shunday natijalarga erishishni istayman.
14 Mening burchim madaniyatliyu madaniyatsizlarga*, ziyoliyu savodsizlarga
Xushxabarni aytishdan iborat. 15 Shuning uchun men sizlarga, ya’ni Rimdagilarga ham
Xushxabarni aytishga intizorman.

16 Men Xushxabardan or qilmayman, chunki Xudoning kuch–qudrati bo‘lgan bu
Xushxabar orqali unga ishonganlarning hammasi qutqariladi. Ishonadiganlar
yahudiymi, g‘ayriyahudiymi*, farqi yo‘q! 17 Bu Xushxabarda oshkor qilinganki, Xudo
insonlarni imon orqali, ha, faqatgina imon orqali oqlaydi*, chunki Muqaddas bitiklarda:
“Solih inson imon tufayli hayotga ega bo‘ladi”*, deb yozilgan.

Insoniyatning gunohkorligi

18 Barcha fosiqligu adolatsizlik ustiga samodan Xudoning qahri yog‘iladi, chunki
insonlar o‘z adolatsizliklari bilan haqiqatga to‘sqinlik qilyaptilar. 19 Xudo haqida nimaiki
bilish mumkin bo‘lsa, ularga ravshandir, Xudoning O‘zi ularga zohir etgan. 20 Borliq
yaratilgandan beri Xudoning ko‘rinmas xususiyatlari, ya’ni abadiy qudrati va ilohiyoti
ochiq ko‘rinib turibdi. Xudoning ijodiga qarab, Uning xususiyatlarini tushunib olsa
bo‘ladi. Shunday ekan, ular: “Xudoni bilmaymiz”, deb bahona qilolmaydilar. 21 Ular
Xudoni bilsalar–da, Uni ulug‘lamadilar, Unga shukur qilmadilar. Aksincha, bema’ni o‘y–
xayollarga berilib ketdilar, ularning nodon onglari zulmatga cho‘kdi. 22 Ular o‘zlarini
aqlli deb hisoblaydilar, aslida esa nodondirlar. 23 Ular mangu, ulug‘vor Xudoga emas,
balki o‘tkinchi inson, qush, chorva, sudraluvchi jonivorlar suratidagi butlarga sajda
qildilar.

24 Shuning uchun Xudo ularni o‘z yuraklaridagi chirkin ehtiroslari og‘ushida qoldirdi.

Shu sababdan ular bir–birlari bilan behayo ishlar qiladilar. 25 Ular Xudoning haqiqatini
yolg‘on bilan almashtirib, Yaratuvchiga emas, balki yaratilganga sajda qilib, xizmat
qiladilar. Yaratuvchi Xudogagina to abad hamdlar bo‘lsin! Omin.
26 Haqiqatni rad qilganlari uchun Xudo ularni o‘zlarining behayo ehtiroslariga
topshirdi. Hatto ayollar ham tabiiy jinsiy munosabatni notabiiy munosabatga
almashtirib, bir–birlari bilan jinsiy aloqa qildilar. 27 Xuddi shuningdek, erkaklar ham
ayollar bilan bo‘ladigan tabiiy jinsiy munosabatdan voz kechib, bir–birlariga nisbatan
shahvoniy hirs bilan yondilar. Erkaklar bir–birlari bilan behayo ishlar qilib,
qilmishlariga yarasha jazo tortyaptilar.
28 Bu odamlar Xudoni tanib–bilishni rad qilganlari uchun, Xudo ularni buzuq
xayollarga topshirib qo‘ydi, oqibatda ular qilish mumkin bo‘lmagan ishlarni qiladilar.
29 Ular har turli adolatsizlik, yomonlik, ochko‘zlik va yovuzlikka to‘lib, hasadgo‘ylik,
qotillik, janjalkashlik, firibgarlik va badfe’llikka mukkasidan ketgandirlar. 30 Ular
g‘iybatchi bo‘lib, odamlarning orqasidan gapiradilar. Xudodan nafratlanadilar. Ular
surbet, takabbur, maqtanchoqdirlar. Ular yovuz ishlar qilishning har xil yo‘llarini
topadilar, ota–onalariga itoat qilmaydilar. 31 Ular nodondirlar, ularga ishonib bo‘lmaydi,
ularda mehr–shafqat yo‘q. 32 Xudoning qonunida, shunday ishlarni qiladigan odamlar
o‘limga loyiq, deb aytilganini biladilar. Shunday bo‘lsa–da, ular nafaqat bu ishlarni
o‘zlari qiladilar, balki o‘shanday ishlarni qiluvchilarni qo‘llab–quvvatlaydilar.

2–BOB

Xudoning odil hukmi

1 Ey boshqalarni hukm qilayotgan inson! Sen kim bo‘lishingdan qat’i nazar,
boshqalarni hukm qilishga hech haqing yo‘q. Sen boshqa odamni hukm qilib, o‘zingni
ham mahkum etasan. Axir, o‘zing ham shu ishlarni qilyapsan–ku! 2 Bunday ishlar qilib
yurganlarni Xudo mahkum qilishga haqli ekanini bilamiz. 3 Ayni shu ishlarni o‘zing qila
turib, shunday ishlarni qiluvchilarni hukm etsang, Xudoning hukmidan qochib
qutulaman, deb o‘ylaysanmi?! 4 Xudoning cheksiz mehribonligi va sabr–toqatini pisand
qilmayotganingni qara. Axir, Uning muruvvati seni tavbaga yetaklashini bilmaysanmi?!
5 Ammo sen o‘jarlik qilib, gunohlaringdan tavba qilmayapsan. Xudoning adolatli hukmi
ayon bo‘ladigan qahr–g‘azab kunida boshingga tushadigan jazoni yanada
ko‘paytiryapsan.
6 Xudo har kimni qilgan ishiga yarasha taqdirlaydi. 7 Yaxshi ishda qunt qilib, sharaf,
hurmat–ehtirom va mangulikka intilganlarga Xudo abadiy hayot ato qiladi. 8 Ammo
xudbinlik qiladigan, haqiqatni rad etib, adolatsizlikka ergashadiganlar qahr–g‘azabga
duchor bo‘ladi. 9 Yovuzlik qiladigan har bir inson iztirobda qoladi, uning boshiga falokat
tushadi, bu inson yahudiymi, g‘ayriyahudiymi — farqi yo‘q. 10 Yaxshilik qiladiganlarga
esa — yahudiylarga ham, g‘ayriyahudiylarga ham, sharaf, hurmat–ehtirom va tinchlik
nasib etadi. 11 Zero, Xudo tarafkashlik qilmaydi.
12 Xudoning qonunini* bilmasdan turib gunoh qilganlar, qonunga aloqasiz ravishda
hukm qilinadilar. Qonunni bila turib gunoh qilganlar esa qonun bo‘yicha hukm
qilinadilar. 13 Axir, qonunni eshitganlar emas, balki qonunga rioya qiladiganlar Xudoning
oldida oqlanadilar. 14 G‘ayriyahudiylarda Xudoning qonuni yo‘q. Ammo qonunni bilmay
turib, ular tabiiy ravishda qonunning buyurganlarini bajarsalar, o‘zlariga o‘zlari

qonundirlar. 15 Bu bilan ular qonunning talablari o‘z yuraklarida yozilganini
ko‘rsatadilar. Ularning vijdoni ham bunga shahodat beradi, chunki ularning xayollari
ularni goh qoralaydi, goh oqlaydi. 16 Xudo insonlarning yashirin o‘y–xayollarini Iso
Masih orqali hukm qiladigan kunda bularning hammasi ayon bo‘ladi. Men keltirgan
Xushxabarda ana shular bayon etilgan.

Yahudiylar va qonun

17 Mana, orangizdagilarning ba’zilari: “Men yahudiyman”, deydilar, qonunga*
suyangan holda, “Xudoga yaqinman”, deb maqtanadilar. 18 Ey yahudiy! Sen Xudoning
xohish–irodasini bilish va yaxshini yomondan farq qilishni qonundan o‘rganib olibsan.
19-20 Xudoning qonunida barcha ilm–ma’rifat va haqiqat mujassam. Senda mana shu
qonun borligi uchun sen ko‘rlarga yo‘l ko‘rsatuvchi, zulmatda qolganlarga nur,
g‘ofillarga murabbiy, g‘o‘r bolalarga esa muallim ekanligingga ishonching komil.
21 Shunday ekan, sen qanday qilib boshqalarga ta’lim bera turib, o‘zingga ta’lim
bermaysan?! 22 “O‘g‘rilik qilma”, deb nasihat qilib turib, o‘g‘rilik qilasanmi?! “Zino
qilma”, deb turib, o‘zing zino qilasanmi?! “Butlardan jirkanaman”, deb turib, kufrlik
qilasanmi?!* 23 Qonunni bilaman, deb maqtanasan–u, lekin qonunni buzib, Xudoning
nomiga dog‘ tushirasanmi?! 24 Axir, Muqaddas bitiklarda shunday yozilgan–ku: “Sizlarni
deb, xalqlar orasida Xudoning nomi haqorat qilinmoqda.”*

25 Sunnat* masalasiga kelaylik. Agar sen qonunga rioya qiladigan bo‘lsang,
sunnatning foydasi bor. Ammo qonunni buzsang, sening sunnating sunnatsizlikdan hech
farq qilmaydi. 26 Xuddi shuningdek, agar sunnat qilinmaganlar qonunga amal qilsalar,
ularning sunnatsizligi sunnatday qabul qilinmaydimi?! 27 Shunday ekan, sunnatsiz bo‘la
turib, qonunga amal qiladigan odam seni mahkum qilmaydimi?! Axir, senda Muqaddas
bitiklar bor, sen sunnat qilingansan–u, lekin baribir Xudoning qonunini buzasan.
28 Yahudiy urf–odatlari bilan yashaydiganlarning hammasi ham asl yahudiy emas.
Jismoniy sunnatning o‘zi ham sunnatning asl maqsadini bajarmaydi. 29 Asl yahudiylik
yurakdan kelib chiqadi. Asl sunnat, ya’ni yurakning sunnati qonunga amal qilishdan
kelib chiqmaydi, balki Ruh tomonidan qilinadi. Asl yahudiy insonlarning emas, balki
Xudoning maqtoviga sazovor bo‘ladi.

3–BOB

Xudoning sadoqati

1 Xo‘sh, yahudiylarning qanday ustunligi bor? Yoki sunnatning* nima foydasi bor?
2 Yahudiylar har jihatdan katta ustunlikka egadirlar. Bu ustunlik, eng avvalo, shundan
iboratki, Xudoning kalomi ularga ishonib topshirilgan. 3 Ularning ba’zilari ishonmagan
bo‘lsa, nima bo‘pti? Ularning ishonmaganligi Xudoning sadoqatini bekor qiladimi? 4 Yo‘q,
aslo! Axir, har bir inson yolg‘onchi bo‘lsa ham, Xudo haqdir. Muqaddas bitiklarda Xudo
haqida shunday yozilgan–ku:

> “Shu bois hukm qilganingda Sen barhaqsan,
> Aybimni fosh etganingda doimo to‘g‘ri bo‘lib chiqasan.”*

5 Insoniy fikr yuritib aytayin: agar bizning qabihligimiz Xudoning odilligini yanada
ochiqroq ko‘rsatsa, nima ham derdik? Boshimizga qahr–g‘azab yog‘dirgani uchun Xudo

adolatsizmi? 6 Yo‘q, aslo! Xudo odildir. Xudo adolatsiz bo‘lganda edi, qanday qilib
dunyoni hukm qila olardi?! 7 Mening yolg‘onchiligim Xudoning haqligiga urg‘u berib,
Unga yanada ko‘proq shon–shuhrat keltirar ekan, nima uchun men gunohkor sifatida
mahkum qilinishim kerak? 8 Shunday ekan, “Yaxshilik keltirsin deb, yomonlik
qilaveraylikmi?” deyishimiz kerakmi?! Ba’zilar bizga tuhmat qilib, Pavlus o‘shanday
ta’lim beryapti, deb aytmoqdalar. Bunday tuhmat qilganlar jazoga loyiqdir.

Hamma gunohkordir

9 Xo‘sh, biz, yahudiylar, boshqalardan ustunmizmi? Yo‘q, aslo! Yuqorida isbotlab
o‘tganimday, xoh yahudiy bo‘lsin, xoh g‘ayriyahudiy bo‘lsin, har bir inson gunohning
hokimiyati ostidadir. 10 Axir, Muqaddas bitiklarda quyidagiday yozilgan–ku:

“Hech bir solih kimsa yo‘qdir,
Hatto bironta ham yo‘q!
11 Bironta ham idrokli zot yo‘q,
Hech kim Xudoga yuz burmaydi.
12 Hammasi yo‘ldan ozgan, birday buzilgan,
Yaxshilik qiluvchi bir kimsa yo‘qdir,
Hatto bironta ham yo‘q!*
13 Ochiq qabr kabidir og‘izlari,
Ular yolg‘on gapiradi.
Tillaridan ilon zahri tomadi*.
14 Ularning og‘zidan achchiq so‘zlar, la’nat chiqadi*.
15 Ularning oyoqlari qon to‘kishga shoshiladi,
16 Qadamidan halokatu vayrona keladi.
17 Ular tinchlik yo‘llarini bilmaydi*,
18 Ular Xudodan qo‘rqmaydi.”*

19 Biz bilamizki, qonun neki buyurgan bo‘lsa, qonunga qaram bo‘lganlarga buyurgan,
toki har bir og‘iz yumilsin va butun dunyo Xudo oldida javobgar bo‘lsin. 20 Zotan,
qonunga amal qilish orqali hech kim Xudoning oldida oqlana olmaydi, chunki qonun
insonga gunohkorligini yanada aniqroq ko‘rsatadi.

Gunohkorni oqlash — Xudoning ishi

21 Mana endi qonunga aloqasiz ravishda oqlanish yo‘lini Xudoning O‘zi aniq ko‘rsatdi.
Buni Tavrot va Payg‘ambarlar bitiklari* tasdiqlaydi. 22 Biz Iso Masihga bo‘lgan imonimiz
orqali Xudoning oldida oqlanamiz. Odamlar orasida hech bir farq yo‘q. 23 Axir, hamma
gunoh qilgan va Xudoning ulug‘vorligidan mahrumdir. 24 Lekin gunohkorlar Iso Masih
orqali gunohlaridan ozod bo‘ladilar. Ular oqlanishga loyiq bo‘lmasalar–da, Xudoning
inoyati bilan oqlanadilar. 25-26 Xudo Iso Masihni bu dunyoga yubordi. Masihga
ishonganlarning hammasi Uning to‘kilgan qoni orqali Xudo bilan yarashdi*. Shunday
qilib, Xudo O‘zining adolatini namoyon qildi. U o‘tmishda sabr–toqat qilib, ilgari qilingan
gunohlarni jazosiz qoldirgan edi, endi esa Iso Masihga ishonganlarni oqlab, O‘zining haq
ekanligini ko‘rsatmoqda.

27 Endi maqtanishga arzigulik narsamiz qoldimi? Yo‘q, maqtovga o‘rin yo‘q. Nima
sababga ko‘ra? Amrlarni bajo keltirishni talab qiluvchi qonunga ko‘rami? Yo‘q, insonlar

imon orqali oqlanganda maqtanishga hech o‘rin qolmaydi. 28 Axir, inson qonun
talablarini bajo qilish orqali emas, balki imon orqali oqlanadi, biz bunga qanoat hosil
qildik. 29 Nahotki Xudo faqat yahudiylarning Xudosi bo‘lsa?! U boshqa xalqlarning ham
Xudosi emasmi? Albatta, U boshqa xalqlarning ham Xudosidir. 30 Axir, Xudo yagona–ku!
Sunnatlilarni ham, sunnatsizlarni ham Xudo imon orqali oqlaydi. 31 Demak, biz bu imon
bilan qonunni bekor qilyapmizmi? Yo‘q, aslo! Aksincha, qonunni tasdiqlayapmiz.

4–BOB

Ibrohimning ibratli imoni

1 Xo‘sh, biz bobokalonimiz Ibrohim haqida nima deymiz? Ibrohim qanday qilib
inoyat topdi? 2 Agar Ibrohim savob ishlari tufayli oqlanganda edi, uning maqtanishga
haqi bo‘lardi, ammo Xudoning oldida hech kim maqtana olmaydi. 3 Axir, Muqaddas
bitiklarda nima deb yozilgan? “Ibrohim Xudoga ishondi, Xudo uni ishonchi uchun, solih
deb bildi.”* 4 Mehnatkashga to‘lanadigan maosh iltifot emas, xizmat haqidir. 5 Biroq
qonunni bajarishga suyanmay, balki betavfiqni oqlovchi Xudoga ishongan kishi o‘z
ishonchi tufayli oqlanadi. 6 Mana, qonun talablarini bajo qilgan–qilmaganidan qat’i
nazar, Xudo tomonidan oqlangan odamni Dovud ham baxtli deb aytadi:

7 “Itoatsizligi kechirilganlar baxtlidir,
Egamiz kimning gunohidan o‘tgan bo‘lsa,
O‘sha inson baxtlidir.
8 Egamiz kimning aybini yozmagan bo‘lsa,
O‘sha inson baxtlidir.”*

9 Bu baxtiyorlik faqat sunnat qilinganlarga* mansubmi yoki sunnatsizlarga* ham
tegishlimi? Aytib o‘tganimizday, Xudo Ibrohimni ishonchi uchun solih deb bildi. 10 Xo‘sh,
bu qachon sodir bo‘ldi? Ibrohim sunnat bo‘lishidan oldinmi yoki keyinmi? Sunnat
bo‘lishidan oldin! 11 U sunnatni imon orqali sazovor bo‘lgan solihligining muhri sifatida
qabul qildi. U sunnat qilinmasdan oldin oqlangandi. Shunday qilib, Ibrohim sunnatsiz
holda imon keltirib oqlangan har bir insonning otasi bo‘ldi. 12 Ayni zamonda, Ibrohim
sunnatlilarning ham otasi hisoblanadi. Ammo sharti shuki, sunnatlilarning imoni ham
otamiz Ibrohim sunnat qilinmasdan oldin ega bo‘lgan imonday bo‘lishi kerak.

Xudo O‘z va’dasida turadi

13 Xudo Ibrohimga va uning nasliga, sizlar yer yuzini mulk qilib olasizlar, deb va’da
bergan edi. Ibrohim qonunga itoat qilgani uchun emas, balki Xudo uni ishonchi tufayli
solih deb bilgani uchun Xudo bu va’dani berdi. 14 Agar qonunga suyanadiganlar yer
yuzini mulk qilib oladigan bo‘lsa edi, unda imon behuda, va’da esa quruq bo‘lib qolar
edi. 15 Axir, qonun Xudoning g‘azabini qo‘zg‘atadi, xolos. Qonun bo‘lmasa, qonunbuzarlik
ham bo‘lmaydi. 16 Shu sababdan, Xudoning va’dasi Uning inoyatiga bog‘liq bo‘lib, faqat
imon bilan qabul qilinadi. Ibrohimning imoniday imonga ega bo‘lganlarning hammasi
qonunga amal qilib yashaydimi, yo‘qmi, uning zurriyoti hisoblanadi. Xudoning va’dasi
albatta ularga ham daxldordir. Axir, Ibrohim hammamizning otamizdir. 17 Muqaddas
bitiklarda quyidagicha yozilgan–ku: “Men seni ko‘plab xalqlarning otasi qilaman.”*
O‘liklarni tiriltiruvchi va mavjud bo‘lmagan narsalarni vujudga keltiruvchi Xudoga

ishonib, Ibrohim hammamizning otamiz bo‘ldi.
18 Xudo Ibrohimga yana: “Sening nasling son–sanoqsiz bo‘ladi”*, degan edi. Ibrohim
ko‘p xalqlarning otasi bo‘lishga hech bir umidi qolmaganiga qaramasdan, imoni tufayli
umidvor edi. 19 O‘zi yuz yoshga yaqinlashib, badani ancha zaiflashib qolganiga va xotini
Soraning bepushtligiga qaramay, Ibrohimning imoni zaiflashmadi. 20 Ibrohim imonsizlik
qilmadi, Xudoning va’dasidan shubhalanmadi, balki imonida mahkam turib, Xudoni
ulug‘ladi. 21 Xudo bergan va’dasini bajo keltirishga qodir, deb Ibrohim qat’iy ishonar edi.
22 Mana shu ishonchi uchun Xudo Ibrohimni solih deb bildi. 23 Bu so‘zlar faqatgina
Ibrohimga tegishli emas, 24 balki biz uchun ham aytilgan. Agar Rabbimiz Isoni o‘likdan
tiriltirgan Xudoga ishonsak, Xudo bizni ham oqlaydi. 25 Xudo bizning gunohlarimiz
uchun Iso Masihni o‘limga topshirdi va oqlanishimiz uchun Uni tiriltirdi.

5–BOB

Xudo bilan yarashish

1 Biz imonimiz tufayli oqlanganimiz uchun Rabbimiz Iso Masih orqali Xudo bilan
yarashib, tinchlikka erishdik. 2 Rabbimiz Iso Xudoning inoyati eshigini bizga ochib berdi.
Biz imon tufayli bu inoyatga erishib, mahkam turamiz hamda Xudoning ulug‘vorligiga
sherik bo‘lish umidimiz borligidan faxrlanamiz. 3 Faqatgina o‘sha umidimiz bilan emas,
balki azob–uqubatlarimiz bilan ham faxrlanamiz, chunki azob–uqubatlar sabr–toqat
hosil qilishini bilamiz. 4 Sabr–toqat Xudoga ma’qul fe’l–atvorni, bunday fe’l–atvor esa
umidni hosil qiladi. 5 Umidimiz bizni uyatga qoldirmaydi. Chunki bizga berilgan
Muqaddas Ruh orqali yuraklarimiz Xudoning mehr–muhabbati bilan to‘lib–toshadi.
6 Ha, biz chorasiz bo‘lganimizda, belgilangan vaqtda Masih biz — betavfiqlar uchun
o‘ldi. 7 Solih inson uchun ham o‘lishga rozi bo‘ladigan birorta insonni topish qiyin.
Ehtimol, kimdir himmatli inson uchun o‘lishga jur’at qilar. 8 Lekin biz hali gunohga
botgan chog‘imizda, Masih biz uchun o‘ldi. Shu yo‘sinda Xudo bizga bo‘lgan O‘z mehr–
muhabbatini namoyon qildi. 9 Demak, biz Masihning to‘kilgan qoni tufayli oqlangan
ekanmiz, albatta U bizni Xudoning qahr–g‘azabidan qutqaradi. 10 Biz hali Xudoning
dushmanlari bo‘lgan paytimizda, Xudo O‘z O‘g‘lining o‘limi orqali bizlarni O‘zi bilan
yarashtirdi. Biz endi Xudo bilan yarashgan ekanmiz, albatta O‘g‘lining hayoti tufayli
najot topamiz. 11 Bundan tashqari, biz Rabbimiz Iso Masih tufayli Xudo bilan bo‘lgan
munosabatimizdan faxrlanamiz. Axir, Iso Masih orqali biz Xudo bilan yarashganmiz–ku.

Odam Atodan — o‘lim, Masihdan — hayot

12 Bir odamning dastidan dunyoga gunoh kirib keldi. Gunohdan esa o‘lim kelib
chiqdi. Natijada insonlar o‘ladigan bo‘ldi, chunki hamma gunohkordir. 13 Qonun mavjud
bo‘lmasdan oldin ham dunyoda gunoh bor edi, lekin qonun yo‘qligida gunoh hisobga
olinmaydi. 14 Shunga qaramay, Odam Atodan Musoga qadar yashaganlarning gunohlari
aynan Odam Atoning gunohiday bo‘lmasa–da, o‘lim ularning ustidan hokimlik qildi.
Odam Ato keladigan Zotning timsoli bo‘ldi: 15 bir kishining gunohi tufayli hamma
o‘ladigan bo‘ldi, shunga o‘xshab bir Odam, ya’ni Iso Masihning inoyati orqali hamma
Xudoning boy ehsonidan bahramand bo‘la oladi. Biroq Xudoning ehsonini Odam
Atoning gunohi bilan solishtirib bo‘lmaydi. 16 Xudoning ehsoni bilan Odam Atoning
gunohi orasidagi farq quyidagidan iborat: o‘sha bir gunohning oqibati mahkum
qilinishga olib bordi, ko‘p gunohlardan keyin berilgan ehson esa oqlanishni keltirib

chiqardi. 17 To‘g‘ri, bittagina odamning gunohi tufayli, o‘sha odamning dastidan o‘lim
hokimlik qila boshladi. Ammo Xudoning cheksiz inoyati bilan oqlanganlarning hammasi
endi bir Odam, ya’ni Iso Masih orqali abadiy hayotda hokimlik qiladilar.
18 Shunga ko‘ra, bir gunoh hammani mahkum qilganday, bir solih ish tufayli hamma
oqlanib, yangi hayotdan bahramand bo‘la oladi. 19 Bir odamning itoatsizligi tufayli ko‘p
odamlar gunohkor bo‘lgan bo‘lsa, endi bir Kishining itoatkorligi tufayli hamma solih
bo‘la oladi. 20 Qonun berilgandan keyin gunoh ko‘payib ketdi. Lekin qayerda gunoh ko‘p
bo‘lsa, Xudoning inoyati yanada ko‘proq namoyon bo‘ladi. 21 Gunoh hokimlik qilib, bizni
o‘limga boshlar edi. Ammo biz oqlandik va Rabbimiz Iso Masih orqali abadiy hayotga
egamiz. Bundan ko‘rinib turibdiki, endi Xudoning inoyati hukm surmoqda.

6–BOB

Masih bilan o‘lib, tirilamiz

1 Xo‘sh, nima deylik? Inoyat ko‘payaversin deb, gunoh qilishda davom etaveramizmi?
Yo‘q, aslo! 2 Biz gunoh uchun o‘lganmiz. Endi qanday qilib gunoh qilib yashayveramiz?
3 Unutmanglar, cho‘mdirilish orqali biz — Masihga tegishli bo‘lganlar Uning o‘limiga
sherik bo‘ldik! 4 Biz suvga cho‘mdirilib, Masih bilan birga o‘ldik va ko‘mildik. Otamiz
Xudoning ulug‘vor qudrati bilan Iso Masih o‘likdan tirilganiday, biz ham yangi hayotga
ega bo‘lamiz. 5 Biz cho‘mdirilib, Iso Masihning o‘limiga sherik bo‘lgan bo‘lsak, albatta
Uning o‘likdan tirilishiga ham sherik bo‘lamiz.
6 Biz bilamizki, eski o‘zligimiz Masih bilan birga xochga mixlangani uchun, gunohga
berilgan bu vujudimiz yo‘q qilindi. Endi biz gunohga qul emasmiz. 7 Axir, o‘lgan odam
gunohning amri ostida emas–ku! 8 Agar biz Masih bilan birga o‘lgan bo‘lsak, U bilan
yashashimizga ham ishonchimiz komil.
9 Biz bilamizki, Masih o‘likdan tirilgani uchun U endi boshqa o‘lmaydi, o‘lim endi
Unga hokim bo‘la olmaydi. 10 Masih o‘lgani uchun gunoh endi Unga o‘z ta’sirini ko‘rsata
olmaydi, Uning yangi hayoti Xudoga shuhrat keltiradi. 11 Shuning uchun sizlar o‘zingizni
gunoh oldida o‘lik deb hisoblang. Endi Iso Masih tufayli Xudoga shuhrat keltirib
yashashingiz kerak.
12 Shunday qilib, endi gunoh sizlarning foniy tanalaringiz ustidan hokimlik qilmasin,
xudbin istaklaringizga itoat etmanglar. 13 Tanangizning hech bir a’zosini yomonlik quroli
qilib, gunohning izmiga topshirmanglar. Aksincha, o‘zingizni Xudoning izmiga
topshiringlar, chunki sizlar oldin o‘lik edingizlar, endi esa yangi hayotga egasizlar.
Sizlarning tanangiz Xudoning solihlik quroli bo‘lsin. 14 Gunoh sizlarning ustingizdan
hukmron bo‘lmaydi, chunki sizlar endi qonun ostida emas, balki inoyat panohidasizlar.

Solihlikka qul bo‘lish haqida

15 Xo‘sh, buyog‘i endi nima bo‘ladi? Qonun ostida emas, inoyat panohida bo‘lganimiz
uchun gunoh qilaveraylikmi? Yo‘q, aslo! 16 Bilasizlar–ku, siz o‘zingizni itoatkor qul qilib
kimning izmiga topshirsangizlar, o‘shaning quli bo‘lasizlar. Sizlar kimga bo‘ysunasizlar?
O‘limga olib boruvchi gunohgami yoki solihlikka yetaklovchi itoatkorlikkami? 17 Ammo
Xudoga shukurki, sizlar oldin gunohga qul bo‘lsangiz ham, endi sizlarga o‘rgatilgan
ta’limotga sidqidildan amal qilyapsizlar. 18 Sizlar endi gunohning changalidan ozod
qilinib, solihlikning quli bo‘lib qoldingizlar.
19 Inson ongi zaif bo‘lgani uchun men kundalik hayotdan misol keltirib gapiryapman.

Sizlar bir vaqtlar a’zoyi badaningizni ifloslik va qonunsizlikka topshirib, gunohga yanada chuqurroq botib ketgan edingiz. Endi esa o‘zingizni muqaddaslikka yetaklaydigan solihlikka qul qilib topshiring. 20 Axir, gunohga qul bo‘lgan paytingizda, to‘g‘ri ishlar qilishga majbur emasdingiz. 21 O‘sha paytdagi qilmishlaringizning oqibati nima bo‘ldi?! Hozir ulardan uyalyapsiz, o‘sha qilmishlaringizning oqibati o‘lim–ku! 22 Endi gunohdan ozod qilinib, Xudoning quli bo‘lib qoldingiz. Buning natijasi muqaddaslik va abadiy hayotdir. 23 Gunohning evazi — o‘lim, Xudoning in’omi esa Rabbimiz Iso Masih orqali beriladigan abadiy hayotdir.

7–BOB

Nikoh qonunidan misol

1 Ey birodarlar, axir, sizlar bilasizlar–ku, (men qonunni biladiganlarga aytyapman), qonun faqat tirik insonning ustidan hukmronlik qiladi. 2 Masalan, erli xotinning eri tirik ekan, qonun bo‘yicha u eriga bog‘liq. Ammo eri o‘lsa, u nikohdan ozod bo‘ladi. 3 Shuning uchun hali eri tirik bo‘lgan xotin boshqa erga tegsa, u zinokor deb hisoblanadi. Ammo eri o‘lsa, xotin o‘sha qonundan ozod bo‘ladi va boshqa erga tegsa ham, zino qilgan hisoblanmaydi.

4 Shunga o‘xshab, sizlar ham, ey birodarlarim, Masihning o‘limi orqali qonun uchun o‘lgansizlar. Endi qonundan ozodsizlar, o‘zingizni Boshqasiga, ya’ni o‘likdan tirilgan Masihga bag‘ishlay olasizlar. Buning natijasida esa biz Xudoning yo‘lida samarali ishlar qila olamiz. 5 Zero, biz bashariy tabiatimiz amri bilan yashagan paytimizda, qonun bizning a’zoyi badanimizda gunohkor ehtiroslarni qo‘zg‘atardi. Ularning samarasi esa o‘limdir. 6 Endi esa bizni asir qilgan qonun uchun o‘ldik va undan ozod bo‘ldik. Shunday qilib, biz eskichasiga, ya’ni yozilgan qonun yetakchiligida emas, balki yangichasiga*, ya’ni Muqaddas Ruh yetakchiligida Xudoga xizmat qilamiz.

Qonun va gunoh

7 Xo‘sh, unda nima deymiz? Qonun gunohning manbaimi? Yo‘q, aslo! Ammo qonun bo‘lmaganda edi, men gunoh nima ekanligini bilmagan bo‘lar edim. Masalan, qonun “boshqalarning mulkiga ko‘z olaytirma”* deb buyurmaganda edi, men buning gunoh ekanligini bilmagan bo‘lardim. 8 Ammo gunoh bu amrdan foydalanib, mening yuragimda har xil nafsu hasadni qo‘zg‘atdi. Qonun bo‘lmagan joyda gunoh o‘likdir.

9 Bir vaqtlar men qonunni bilmay yashardim. Ammo amr bor ekanligini bilganimdan keyin, gunoh tirildi, 10 men esa o‘ldim. Amr hayot keltirishi kerak edi, ammo mening o‘limimga sababchi bo‘ldi. 11 Chunki gunoh amrdan foydalanib, meni aldadi va amr orqali meni o‘ldirdi. 12 Ammo qonun baribir muqaddasdir, uning har bir amri muqaddas, odil va yaxshidir.

13 Xo‘sh, yaxshi bo‘lgan qonun menga o‘lim keltirdimi? Mutlaqo! Gunoh menga o‘lim keltirish uchun yaxshi narsadan foydalandi. Gunohning gunoh ekanligi ochiq ko‘rinishi uchun shunday bo‘ldi. Shunday qilib, amr orqali gunohning naqadar yomon ekanligi oshkor bo‘ldi.

Gunohga qarshi kurash

14 Qonunni Xudo bergan. Men esa gunohga qul qilib sotilgan ojiz bandaman. 15 Axir, o‘zim qilayotgan ishlarni o‘zim tushunmayman, chunki qilishni xohlaganlarimni

qilmayman, aksincha, nimani yomon koʻrsam, shuni qilaman. 16 Oʻzim xohlamagan
ishlarni qilayotgan ekanman, bu bilan qonunning yaxshi ekanligini maʼqullayotgan
boʻlaman. 17 Demak, bu ishlarni men oʻzim emas, balki yuragimdagi gunoh qilayotgan
boʻladi.
18 Menda, yaʼni bashariy tabiatimda hech qanday yaxshi jihat yoʻqligini aniq bilaman.
Yaxshilik qilish istagi dilimda bor boʻlsa–da, uni roʻyobga chiqarishga kuchim yetmaydi.
19 Oʻzim qilishni xohlagan yaxshilikni qilmayman–da, uning oʻrniga oʻzim qilishni
xohlamagan yomonlikni qilaman. 20 Oʻzim xohlamagan ishni qilayotgan ekanman,
demak, bu ishni men emas, balki yuragimdagi gunoh qilyapti.
21 Men bundan ushbu xulosani chiqaraman: yaxshilik qilmoqchi boʻlganimda,
qalbimda hamisha yomonlik poylab turadi. 22 Butun qalbim bilan Xudoning qonunidan
zavq olaman. 23 Ammo aʼzoyi badanimda boshqa bir qoida amal qilmoqda. Bu qoida
ongimdagi qonunga qarshi kurash olib borib, aʼzoyi badanimda amal qiluvchi gunoh
qoidasiga meni asir qilyapti. 24 Oh, men shoʻrlik odam! Oʻlim soyasi ostidagi bu
ahvolimdan kim meni qutqarar ekan? 25 Xudoga shukur! Rabbimiz Iso Masih orqali U
bizni qutqaradi!
Xullasi kalom, men ongim bilan Xudoning qonuniga qul boʻlsam–da, bashariy
tabiatim gunoh qoidasiga quldir.

8–BOB

Muqaddas Ruhning yetakchiligida yashash

1 Iso Masihga tegishli boʻlganlar* endi hukm qilinmaydilar. 2 Hayot ato etuvchi
Ruhning qonun–qoidasi Iso Masih orqali bizni* gunohdan va oʻlimga yetaklaydigan
qonundan ozod qildi. 3 Inson Xudoning qonunini bajara olmagani uchun qonun taʼsirsiz
boʻlib qoldi. Qonun insonni gunohdan qutqara olmagani uchun Xudoning Oʻzi odamlarni
qutqardi. U Oʻz Oʻgʻlini gunohkor insonga oʻxshatib, bu dunyoga yubordi va gunohning
qudratini yoʻq qildi*. Shu yoʻsin Xudo inson orqali gunohni mahkum qildi. 4 Biz —
bashariy tabiatning emas, balki Ruhning yetakchiligida yashayotganlar — qonun talab
qilgan solihlikka erishishimiz uchun Xudo shunday qildi.
5 Bashariy tabiat yetakchiligida yashaydiganlar bashariy fikr qiladilar. Ruhning
yetakchiligida yashaydiganlar esa Ruhni mamnun qiladigan narsalar haqida fikr
qiladilar. 6 Bashariy tabiat yetakchiligida fikr qilish oʻlimga yetaklaydi, Ruh
yetakchiligida fikr qiladiganlar esa hayot va tinchlikka ega boʻladilar. 7 Bashariy tabiat
yetakchiligida fikr qilish Xudoga dushmanlikdir, chunki bunday tabiat Xudoning
qonuniga itoat qilmaydi, darhaqiqat, itoat qila olmaydi ham. 8 Bashariy tabiat
yetakchiligida yashaydiganlar Xudoni mamnun qila olmaydi.
9 Agar Xudoning Ruhi haqiqatan ham sizlarning qalbingizda makon qilgan boʻlsa,
sizlar endi bashariy tabiat amri bilan emas, balki Ruh amri bilan yashayapsizlar. Kimki
Masihning Ruhiga ega boʻlmasa, u Masihga tegishli emas. 10 Ammo Masih sizning
qalbingizda makon qilgan. Toʻgʻri, gunoh tufayli tanangiz oʻlimga mahkum qilingan,
lekin endi Xudoning Ruhi sizlar uchun hayot manbaidir*, chunki sizlar oqlangansiz.
11 Isoni oʻlikdan tiriltirgan Xudoning Ruhi qalbingizda yashayapti. Iso Masihni oʻlikdan
tiriltirgan Xudo yuragingizda yashayotgan Oʻz Ruhi orqali sizlarning foniy tanangizni
ham oʻlikdan tiriltiradi.

12 Shunday qilib, ey birodarlar, endi biz bashariy tabiatimizning amri bilan
yashashga majbur emasmiz. 13 Axir, bashariy tabiat yetakchiligida yashasangiz,
o‘lasizlar, ammo Ruh orqali o‘sha tabiatning qilmishlariga chek qo‘ysangiz, yashaysizlar.
14 Xudo Ruhining yetakchiligida yashaydiganlarning hammasi Xudoning
farzandlaridir. 15 Xudo bizga O‘z Ruhini berdi. Buni yana qul bo‘lib, qo‘rquvda
yashashimiz uchun emas, balki Uning farzandi bo‘lib, Ruh orqali Xudoni “Otajon”* deb
chaqirishimiz uchun qildi. 16 Xudoning Ruhi bizning ruhimizga qo‘shilib, biz Xudo
farzandlari ekanligimiz haqida guvohlik berib turadi. 17 Biz Xudoning farzandlari
ekanmiz, demak, farzandlarday Uning va’da qilgan barakalariga ega bo‘lamiz, Masih
bilan birga bu barakalarni baham ko‘ramiz. Biz Masihning azob–uqubatlariga sherik
ekanmiz, albatta, Uning ulug‘vorligiga ham sherik bo‘lamiz.

Hozirgi azob–uqubatlar va kelajakdagi ulug‘vorlik

18 Ishonchim komilki, hozirgi azob–uqubatlarimiz bizga zohir qilinadigan ulug‘vorlik
oldida hech narsa emas. 19 Axir, Xudoning farzandlari kim ekanligining ayon qilinishini
butun mavjudot intizorlik bilan kutyapti. 20-21 Chunki mavjudot behudalikka mubtalo
bo‘lgan*. Bu — mavjudotning ixtiyori bilan emas, balki Xudoning ixtiyori bilan bo‘ldi.
Shunday bo‘lsa–da, mavjudot chirib–bitish qulligidan ozod etilib, Xudoning farzandlari
bilan birga ulug‘vor erkinlikdan bahramand bo‘lishiga umid bor*.
22 Axir, butun mavjudot go‘yo to‘lg‘oq azobida, hozirga qadar oh–nola qilayotganini
bilamiz. 23 Nafaqat mavjudot, balki biz o‘zimiz — Xudoning Ruhi bilan yashash qanday
ekanligini tatib ko‘rganlar ham — ich–ichimizdan oh–nola qilyapmiz. Xudoning
farzandlari qilib asrab olinganimizning to‘liq ro‘yobga chiqishini hamda o‘ladigan
badanimizning chirib–bitishdan ozod bo‘lishini intizorlik bilan kutyapmiz.
24 Umidimizning ro‘yobga chiqishini kutib, najot topganmiz. Ko‘zga ko‘rinib turgan narsa
umid emas. Axir, kim ko‘rib turgan narsani umid qiladi?! 25 Agarda biz ko‘rmaganimizni
umid qilayotgan bo‘lsak, buni sabr bilan kutsak bo‘ladi.
26 Buning ustiga, ojizligimizda Ruh bizga madad beradi. Chunki biz qanday ibodat
qilishni bilmaymiz, ammo Ruhning O‘zi ifoda qilib bo‘lmas oh–nolalar bilan biz uchun
Xudo oldida shafoat qiladi. 27 Insonlarning yuragini sinovchi Xudo Ruhning fikri nimada
ekanligini biladi, chunki Ruh Xudoning irodasiga ko‘ra, Uning azizlari uchun shafoat
qiladi.
28 Biz bilamizki, Xudoni yaxshi ko‘rganlarga hamma narsa yaxshilikka xizmat qiladi,
chunki Xudo ularni O‘zining maqsadiga ko‘ra, da’vat etgan. 29 Xudo ularni azaldan tanlab
olgan edi va “Mening O‘g‘limga o‘xshagan bo‘lsinlar”, deb oldindan belgilab qo‘ygan edi,
toki O‘g‘il ko‘p birodarlar orasida to‘ng‘ich bo‘lsin*. 30 Xudo oldindan belgilab
qo‘yganlarni da’vat etdi, da’vat etganlarni oqladi, oqlaganlarni O‘zining ulug‘vorligidan
bahramand qildi.

Xudoning mehr–muhabbati

31 Endi bunga nima deymiz? Xudo biz tomonda ekan, hech kim bizga qarshi tura
olmaydi! 32 Xudo O‘z O‘g‘lini ayamay, hammamiz uchun Uni fido qilgan bo‘lsa, Unga
qo‘shib, qolgan hamma narsani ham bizga ato qilmasmikan?! 33 Xudoning tanlaganlarini
kim ayblay olardi?! Xudoning O‘zi ularni oqlaydi–ku! 34 Bizni kim mahkum qilar ekan?!
Axir, o‘lib, tirilgan, Xudoning o‘ng tomonida* o‘tirgan Iso Masihning O‘zi biz uchun
shafoat qilmoqda–ku! 35 Kim bizni Masihning* mehr–muhabbatidan ajrata oladi? Azob–

uqubatmi, iztirobmi, quvg‘inmi, ochlikmi, yalang‘ochlikmi, xavf–xatarmi yoki qilichmi?
36 Muqaddas bitiklarda yozilgan–ku:

“Sen tufayli har kuni o‘limga duch kelamiz,
Bo‘g‘izlanadigan qo‘yday bo‘lib qolganmiz.”*

37 Axir, bizni yaxshi ko‘radigan Masih orqali hamma qiyinchiliklar ustidan butunlay g‘alaba qozonamiz. 38 Men aminmanki, o‘lim ham, hayot ham, farishtalaru jinlar ham, hech qanday g‘ayritabiiy kuchlar ham, hozirgiyu kelgusi hodisalar ham, 39 balandliklaru chuqurliklar ham, yaratilgan bironta mavjudot ham bizni Rabbimiz Iso Masih shaxsidagi Xudoning mehr–muhabbatidan judo qilishga qodir emas.

9–BOB

Xudo tanlagan xalq

1 Men Iso Masihga tegishli bo‘lganim uchun haqiqatni aytyapman, yolg‘on gapirmayman. Bu haqda vijdonim ham Muqaddas Ruh orqali shahodat beryapti. 2 O‘z xalqim uchun chuqur qayg‘uga botgan yuragim muttasil alam chekmoqda. 3 O‘z qondoshlarim haqi, Xudoning la’nati ostida qolib, Masihdan ajralishga ham rozi bo‘lardim. 4 Ular Isroil xalqidir. Xudo ularni O‘ziga farzand* qilib olish uchun tanladi. O‘zining ulug‘vorligini ularga namoyon qilib, ular bilan ahdlar* tuzdi. Ularga O‘z qonunini berib, ularni O‘zining xizmatiga tayinladi hamda ularga O‘z va’dalarini berdi.
5 Ular ulug‘ ota–bobolardan kelib chiqqan, Masih ham jisman Isroil xalqidan kelib chiqqan. Butun borliq ustidan hukmdor bo‘lgan Xudoga abadiy hamdu sanolar bo‘lsin*. Omin!

6 Xudo O‘z so‘zida turmadi, demoqchi emasman. Ammo Isroil xalqining hammasi ham Xudoning xalqi emasdir. 7 Shunga o‘xshab, Ibrohimdan tug‘ilganlarning hammasi ham Ibrohimning asl zurriyoti deb hisoblanmaydi. Axir, Xudo Ibrohimga: “Sening nasling Is’hoq orqali kelib chiqadi”*, deb aytgan–ku! 8 Demak, jismoniy jihatdan Ibrohimning farzandlari bo‘lganlarning hammasi ham Xudoning farzandlari emasdirlar. Faqatgina Xudo bergan va’daning natijasida* dunyoga kelganlar asl zurriyot hisoblanadi. 9 Xudoning Ibrohimga bergan va’dasi quyidagicha edi: “Men kelgusi yili shu paytda kelganimda, xotining Sora o‘g‘illi bo‘ladi.”*

10 O‘sha o‘g‘il bobokalonimiz Is’hoq edi. Vaqti kelib, Is’hoqning xotini Rivqo egizak o‘g‘illarga homilador bo‘ldi. 11-12 Farzandlar tug‘ilmaslaridan avval, hali birorta yaxshi yoki yomon ish qilmaslaridan oldin Xudo Rivqoga: “Kattasi kichigiga xizmat qiladi”*, deb aytgandi. Bundan ko‘rinib turibdiki, Xudo O‘z maqsadini bajarish uchun insonlarni tanlaydi, tanlanish insonlarning ishlariga emas, balki Xudoning da’vatiga bog‘liqdir.
13 Axir, Muqaddas bitiklarda: “Men Yoqubni yaxshi ko‘rib, Esovdan nafratlandim”*, deb yozilgan–ku!

14 Xo‘sh, bunga nima deymiz? Xudo adolatsizmi? Yo‘q, aslo! 15 Xudo Musoga: “Marhamat qiladiganimga marhamat qilaman, shafqat qiladiganimga shafqat qilaman”*, deb aytgan. 16 Shunday qilib, Xudoning mehr–shafqati inson xohishi va tashabbusiga emas, balki Xudoning irodasiga bog‘liq. 17 Muqaddas bitiklarda yozilganiday, Xudo fir’avnga: “Senga qudratimni ko‘rsatay, butun olamga shuhratimni yoyay deb, seni

hukmdor qilib tayinladim”*, deb aytgan. 18 Xullas, Xudo O‘z xohish–irodasiga ko‘ra, ish
yuritadi, bir insonga marhamat ko‘rsatadi, boshqa birovning esa yuragini tosh qiladi.

Xudoning g‘azabi va marhamati

19 Shunda kimdir mendan: “Unda nima uchun Xudo bizni ayblaydi? Axir, kim ham
Uning irodasiga qarshi chiqa olardi?” deb so‘rashi mumkin. 20 Ey inson, sen kim
bo‘libsanki, Xudoga gap qaytarsang?! Yaratilgan narsa yaratuvchisidan: “Nima uchun
meni bunday qilib yaratding?” deb so‘raydimi?! 21 Axir, kulol ham bir loy qorishmasidan
har xil idishlar yasaydi–ku! Ularning ba’zilarini qutlug‘ bayram kunlarida ishlatiladigan
qilishga, boshqalarini esa har kuni ishlatiladigan idish qilib qo‘yishga haqi yo‘qmi?!
22 To‘g‘ri, Xudo O‘z g‘azabi va qudratini jazo orqali ko‘rsatishga haqlidir. Ammo
jazoga mubtalo bo‘ladiganlarning halokatini orqaga surib, sabr–bardosh ko‘rsatsa, nima
bo‘pti? 23 Shunday qilib, Xudoning marhamatiga sazovor bo‘lgan va Uning ulug‘vorligini
baham ko‘rishga belgilangan odamlarga Xudo O‘z ulug‘vorligining naqadar boy
ekanligini namoyon qiladi. 24 Nafaqat yahudiylar orasidan, balki boshqa xalqlar orasidan
tanlanganlar qatorida biz ham bormiz. 25 Xo‘sheya kitobida Xudo shunday deb aytgan:
“Mening xalqim bo‘lmaganlarni «O‘z xalqim» deb atayman. Oldin suyukligim
bo‘lmaganni «Suyukligim» deb aytaman*. 26 Ularga: «Xalqim emas», deb aytilgan bo‘lsa,
kelajakda ular «Barhayot Xudoning farzandlari» deb ataladi.”*
27 Ishayo ham Isroil xalqi haqida shunday degan edi: “Isroil xalqining soni dengiz
qumiday ko‘p bo‘lsa ham, ulardan faqatgina sanoqli odamlar qutqarilib, omon qoladi,
28 chunki Egamiz dunyo ustidan chiqargan hukmini to‘la–to‘kis va tezda ijro etadi.”*
29 Bulardan oldinroq Ishayo yana shunday deb aytgan edi:

> “Agarda Sarvari Olam
> Qoldirmaganda edi bizga zurriyot,
> Sado‘m shahrining holiga tushar edik,
> G‘amo‘ra shahriday* xonavayron bo‘lardik.”*

Isroil xalqi va oqlanish

30 Xo‘sh, bular nimani bildiradi? Oqlanish payida bo‘lmagan xalqlar endi imon tufayli
Xudoning oldida oqlandilar. 31 Isroil xalqi esa oqlanish niyatida qonunni bajarish payida
bo‘ldilar, lekin maqsadlariga erisha olmadilar. 32 Nima uchun? Chunki ular imon bilan
emas, balki qonunni bajarish orqali oqlanishga urindilar. Ular Muqaddas bitiklarda
tasvirlangan toshga qoqilib yiqildilar. 33 Xudo Muqaddas bitiklarda shunday deb aytgan
edi: “Men Quddusda* bir tosh joylashtiryapman. Ba’zilar Unga qoqilib yiqiladilar, ammo
Unga tayangan hech bir inson uyatga qolmaydi.”* Bu tosh Iso Masihdir*.

10–BOB

Najot hamma uchun

1 Birodarlarim, men o‘z xalqim Isroilning najot topishini chin dildan istayman va bu
uchun Xudoga iltijo qilaman. 2 Axir, o‘zim guvohman: ular jon–jahdlari bilan Xudoga
berilganlar, ammo haqiqiy tushunchaga ega emaslar. 3 Xudoning insonlarni oqlash
yo‘lini tushunmasdan, o‘zlarini oqlash niyatida, ular Xudoning haq yo‘liga
bo‘ysunmadilar. 4 Iso Masih esa qonunning maqsadini amalga oshirdi, shu tariqa hamma

imon orqali oqlanadi.
5 Qonun orqali oqlanish haqida Muso quyidagicha yozgan edi: “Xudoning qonun–
qoidalariga rioya qilgan odam hayotdan bahramand bo‘ladi.”* 6-7 Imon orqali oqlanish
haqida esa Muqaddas bitiklarda nima deb yozilgan? “Yuragingizda: «Kim osmonga
chiqadi? Kim tubsiz chuqurlikka tushadi?» deya so‘ramanglar”, deb yozilgan*. Demak,
Masihni yerga tushirish uchun hech kim osmonga chiqishi shart emas, Masihni tiriltirish
uchun ham hech kim o‘liklar diyoriga* tushishi shart emas. 8 Axir, Muqaddas bitiklarda
yana shunday yozilgan: “Bu kalom sizning yaqiningizdadir, og‘zingizda va
yuragingizdadir.”* Biz va’z qilayotgan imon haqidagi kalom ana shudir. 9 Agar o‘z
og‘zingiz bilan Isoni Rabbim deb e’tirof etib, Xudo Uni o‘likdan tiriltirganiga chin
yurakdan ishonsangiz, najot topasiz. 10 Chunki inson qalbidan ishonib oqlanadi va og‘zi
bilan e’tirof etib najot topadi. 11 Muqaddas bitiklarda yozilganday: “Unga ishongan hech
bir inson uyatga qolmaydi.”* 12 Yahudiylar bilan g‘ayriyahudiylar orasida aslo farq yo‘q.
Ularning Rabbiysi bir bo‘lib, Unga iltijo qilganlarning birontasidan U O‘z mehr–
shafqatini ayamaydi. 13 Axir, “Rabbimizga iltijo qilgan har bir inson qutqariladi”*, deb
yozilgan–ku.
14 Ammo Rabbimiz Isoga ishonmaganlar qanday qilib Unga iltijo qiladilar?! U haqda
eshitmagan bo‘lsalar, qanday qilib Unga ishonadilar?! Hech kim ularga Xushxabarni
e’lon qilmasa, qanday qilib eshitadilar?! 15 Ularni hech kim yubormasa, qanday qilib
Xushxabarni e’lon qiladilar?! Muqaddas bitiklarda quyidagicha yozilgan–ku:
“Xushxabarni e’lon qilgan xabarchining qadamlari naqadar go‘zal!”* 16 Ammo
Xushxabarga hamma ham ishonmadi. Ishayo ham shunday degan–ku: “Ey Egam, bizning
xabarimizga kim ishondi?”*
17 Demak, imon tinglashdan, ya’ni Masih haqidagi Xushxabarni eshitishdan kelib
chiqadi. 18 Mening bir savolim bor. Xo‘sh, ular eshitmaganmidi? Albatta eshitganlar,
chunki “xabarchilarning ovozlari har tomonga tarqaldi, xabarlari olamning chetigacha
yetib bordi”*, deb yozilgan–ku. 19 Bundan yana bir savol kelib chiqadi. Xo‘sh, Isroil xalqi
xabarni tushunmadimi? Muso orqali Xudo shunday degandi:

> “Men ham xalq bo‘lmaganlar bilan ularning rashkini keltiraman,
> Aqlsiz bir xalq bilan g‘azabini qo‘zg‘ataman.”*

20 Ishayo ham Xudoning so‘zlarini jasorat bilan yetkazgan:

> “Meni izlamaganlar topdi,
> Meni so‘ramaganlarga ko‘rindim.”*

21 Isroil xalqi haqida esa shunday deydi:

> “Itoatsiz va o‘jar xalqni
> Kun bo‘yi quchoq ochib kutdim.”*

11–BOB

Xudoning tanlangan xalqi

1 Shunday qilib, yana bir savolim bor. Nahotki Xudo O‘z xalqini rad qilgan bo‘lsa?

Yo‘q, aslo! Men o‘zim Isroil xalqidan bo‘lib, Ibrohimning avlodidanman, Benyamin
qabilasiga tegishliman–ku! 2 Xudo azaldan tanlab olgan xalqini rad qilgani yo‘q.
Muqaddas bitiklarda Ilyos haqida nima yozilgani esingizda yo‘qmi?! U Isroil xalqidan
shikoyat qilib, Xudoga shunday degan edi: 3 “Ey Egam, Isroil xalqi qurbongohlaringni
buzdi, payg‘ambarlaringni qilichdan o‘tkazdi. Yolg‘iz men qoldim, xolos. Endi jonimni
olish uchun meni ham qidirib yuribdilar.”* 4 Xudo unga nima deb javob berdi? “Men
Isroil xalqidan O‘zim uchun Baal* oldida tiz cho‘kmagan yetti ming odamni qoldirdim.”*
5 Xuddi shunga o‘xshab, hozir ham Xudoga sodiq qolganlar bor, chunki ular Xudoning
inoyati bo‘yicha tanlanganlar. 6 Tanlash insonlarning ishlariga emas, Xudoning inoyatiga
bog‘liq. Agar shunday bo‘lmaganda edi, inoyat haqiqiy inoyat bo‘lmas edi*.

7 Xullas, bu nimani bildiradi? Isroil xalqi solihlik payida bo‘lsa ham, solihlikka
erishmadi. Faqatgina tanlanganlar bu maqsadga erishdi, qolganlarning esa yuraklari
tosh bo‘ldi. 8 Muqaddas bitiklarda yozilganday*:

> “Xudo shu paytgacha ularni qattiq uxlatib qo‘ydi,
> Ularga ko‘radigan ko‘z, eshitadigan quloq bermadi.”

9 Dovud ham shunday degan:

> “Dasturxonlari o‘zlariga to‘ru tuzoq bo‘lsin.
> Shunda ular qoqilib,
> Jazolarini oladilar.
> 10 Ko‘z nurlari so‘nsin, ko‘rmay qolsin,
> Bellari to abad bukchayib qolsin.”*

11 Bundan yana bir savol kelib chiqadi. Yahudiylar qoqilganda, butunlay halok
bo‘ldilarmi? Yo‘q, aslo! Aksincha, ular Masihni rad qilganlari uchun g‘ayriyahudiylar
najotga ega bo‘ldilar, toki Isroil xalqining rashki qo‘zg‘alsin. 12 Yahudiylar Masihni rad
etib, butun dunyoni yanada boyitdilar. O‘zlari yo‘qotgan boylik bilan g‘ayriyahudiylarga
foyda keltirdilar. Agar ularning bu gunohi shunday samara keltirgan bo‘lsa, ularning
najot topishi qanchalik foyda keltirishini bir tasavvur qilib ko‘ringlar–a!

Novdalarning payvand qilinish misoli

13 Endi sizlarga — g‘ayriyahudiylarga aytyapman. To‘g‘ri, men sizlarga Xushxabar
keltirish uchun yuborilganman. Bu xizmatimni jon–jahdim bilan bajaraman, 14 balki bu
xizmatim bilan o‘z qondoshlarim yahudiylarning rashkini qo‘zg‘atarman, ularning
ba’zilarini qutqarib qolarman. 15 Yahudiylarning rad etilishi dunyoni Xudo bilan
yarashtirgan bo‘lsa, ularning Xudo tomonidan qabul qilinishi o‘limdan hayotga olib
bormaydimi?

16 Birinchi yopilgan non Xudoga bag‘ishlanib muqaddas bo‘lsa, xamirning qolgani
ham muqaddasdir. Agar tomirlar muqaddas bo‘lsa, novdalar ham muqaddasdir. 17 Ba’zi
yahudiylar daraxtning sindirib tashlangan novdalariga o‘xshaydilar. Sizlar —
g‘ayriyahudiylar esa tabiiy novdalar orasiga payvand qilingan yovvoyi zaytun
novdalariga o‘xshaysizlar. Endi ular bilan birga bir tomirdan oziqlanyapsizlar.
18 Shunday ekan, boshqa novdalarga qarab maqtanmanglar. Agar juda kekkayib
ketsangizlar, yodga olinglar, sizlar tomirni emas, balki tomir sizlarni oziqlantiryapti.

19 Ehtimol sizlar: “Biz payvand qilinishimiz uchun novdalar sindirildi”, dersizlar.
20 To‘g‘ri, lekin esingizda bo‘lsin: ular ishonmaganlari uchun sindirib tashlandilar, ammo
sizlar imoningiz orqali payvand qilingansiz. Shuning uchun kekkayib ketmanglar, balki
Xudodan qo‘rqinglar. 21 Aks holda, Xudo tabiiy novdalarni ayamagani kabi, sizlarni ham
ayamaydi.
22 Shunday qilib, Xudoning mehribonligi va qattiqqo‘lligi haqida o‘ylab ko‘ring:
Xudoning najotini rad qilganlarga U qattiqqo‘llik qildi, sizlarga — payvand qilinganlarga
esa U mehribonlik ko‘rsatdi. Agar Xudoga sodiq qolsangiz, Uning mehribonligidan
bahramand bo‘laverasiz. Bo‘lmasa, Xudo sizlarni ham kesib tashlaydi. 23 Najotni rad
qilganlar o‘z imonsizliklarini bas qilsalar, payvand qilinadilar. Xudo ularni qayta
payvand qilib qo‘yishga qodir. 24 Axir, sizlar yovvoyi zaytun daraxtidan kesib olinib,
parvarishlangan zaytun daraxtiga, tabiatga xilof ravishda, payvand qilindingiz. Shunday
ekan, ular, tabiiy novdalar, o‘zlarining daraxtiga qanchalar osonlik bilan qayta payvand
qilinadilar–a!
25 Birodarlarim, sizlar tag‘in o‘zbilarmon bo‘lib ketmanglar deb, bu sirni sizlarga
bildirmoqchiman: belgilangan miqdordagi g‘ayriyahudiylar najot topmaguncha, Isroil
xalqining ba’zilari o‘jar bo‘lib qolaveradilar. 26 Shundan keyin butun Isroil qutqariladi.
Muqaddas bitiklarda Xudo shunday degan–ku*:

> “Qutqaruvchi Quddusdan* keladi,
> Yoqub naslidan betavfiqlikni yo‘q qiladi.
> 27 Ular bilan qilgan ahdim mana shudir:
> Men ularni gunohlaridan forig‘ qilaman.”

28 Yahudiylar Xushxabarni rad qilib, Xudoning dushmanlari bo‘lib qoldilar, bu
sizlarga — g‘ayriyahudiylarga foyda keltirdi. Ammo Xudo yahudiylarni tanlagani uchun,
ularning ota–bobolari haqi hali ham ularni yaxshi ko‘radi. 29 Chunki Xudo bergan
in’omlarini qaytarib olmaydi va O‘zi da’vat qilgan xalqidan voz kechmaydi. 30 Siz —
g‘ayriyahudiylar ham bir vaqtlar itoatsiz edingiz, ammo yahudiylarning itoatsizligi
natijasida Xudo sizlarga mehr–shafqat ko‘rsatdi. 31 To‘g‘ri, hozir yahudiylar itoatsiz,
ammo sizlarga ko‘rsatilgan mehr–shafqat tufayli ular ham mehr–shafqat topadilar.
32 Hammaga mehr ko‘rsatay deb, Xudo hammani itoatsizlikka tutqun qildi.
33 Xudoning donoligiyu bilimi naqadar boy va chuqurdir! Uning hukmlarini kim
tushunib yetadi?! Uning yo‘llarini kim sinchiklab tekshira oladi?! 34 Kim Egamizning
fikr–zikrini bila oladi?! Kim Unga maslahat bera oladi?!* 35 Kim Xudoga shunday hadya
berganki, Xudo undan qarzdor bo‘lsa?!* 36 Hech kim! Chunki butun borliq Xudodan kelib
chiqqan, Xudo orqali va Xudo uchun mavjuddir! Unga to abad shon–sharaflar bo‘lsin!
Omin.

12–BOB

Hayotni Xudoga bag‘ishlab yashash

1 Shunday qilib, ey birodarlarim, Xudoning marhamati haqi sizlarga yolvoraman. O‘z
tanangizni tirik, muqaddas va Xudoga manzur bo‘ladigan qurbonlik sifatida bag‘ishlang.
Xudoga loyiq bo‘lgan asl xizmat mana shudir. 2 Bu dunyoga moslashmanglar, fikr–

zikringizni yangilab, tubdan o‘zgaringlar. Shunda Xudoning irodasini tushuna oladigan bo‘lasiz, ya’ni nima yaxshi, Xudoga manzur va mukammal ekanligini bila oladigan bo‘lasiz.

3 Menga berilgan inoyatdan foydalanib, sizlarga aytyapman: o‘zingizga haddan
tashqari yuqori baho bermanglar. Aksincha, Xudo har bir kishiga qancha imon bergan
bo‘lsa, shunga ko‘ra, fikr qilib, aqli raso odamlar bo‘linglar. 4 Axir, tanamiz bir bo‘lsa–da,
tanamiz a’zolari ko‘p, tanamiz a’zolarining vazifasi ham bir xil emas. 5 Shunga o‘xshab,
biz — Masihga tegishli bo‘lganlar bir tanani tashkil qilamiz. Har birimiz har xil a’zolar
bo‘lib, bir–birimizga bog‘liqmiz. 6 Bizga berilgan inoyat bo‘yicha har birimizning har xil
in’omlarimiz bor. Agar birortasida Xudoning so‘zini boshqalarga yetkazish in’omi bo‘lsa,
u e’tiqodimizga muvofiq ravishda gapirsin. 7 Agar birorta odamga xizmat qilish in’omi
berilgan bo‘lsa, u xizmat qilsin, agar birortasiga muallimlik in’omi berilgan bo‘lsa, u
ta’lim bersin. 8 Agar insonga dalda berish in’omi berilgan bo‘lsa, u dalda bersin, beg‘araz
yordam beradigan bo‘lsa, saxiylik bilan bersin. Yetakchilik qiladigan odam qunt bilan
yetakchilik qilsin, mehr–shafqat ko‘rsatadigan odam xursandchilik bilan ish tutsin.

9 Bir–biringizga bo‘lgan mehr–muhabbatingiz samimiy bo‘lsin. Yomonlikdan
nafratlanib, yaxshilikni mahkam tuting. 10 Bir–biringizni birodarlarcha, chuqur
muhabbat bilan yaxshi ko‘ring. Bir–biringizni hurmat qilib, o‘zingizdan yuqori ko‘ring.
11 G‘ayratingiz susaymasin, butun qalbingiz bilan Rabbimiz Isoga xizmat qiling.
12 Umidingiz borligi uchun xursand bo‘ling. Qiyinchilikda sabr–toqat qiling. Ibodat
qilishdan charchamang. 13 Muhtojlikda bo‘lgan Xudoning azizlariga yordam bering,
doimo mehmondo‘st bo‘ling.

14 Sizlarni quvg‘in qilayotganlarni duo qilinglar, ularni qarg‘amanglar.
15 Sevinayotganlar bilan birga seviningiz, yig‘layotganlar bilan birga yig‘langlar.
16 O‘zaro hamfikr bo‘linglar. Takabburlik qilmay, bechora hamda past tabaqali odamlar
bilan do‘st bo‘linglar. O‘zbilarmonlik qilmanglar. 17 Hech kimga yomonlik evaziga
yomonlik qaytarmanglar, odamlar yaxshilik deb bilganlarni qilishga intilinglar. 18 Agar
iloji bo‘lsa, qo‘lingizdan kelganicha, barcha odamlar bilan tinch–totuv hayot
kechiringlar. 19 Azizlarim, o‘zingiz uchun o‘zingiz qasos olmang, balki Xudoning
g‘azabiga yo‘l qo‘yib bering. Axir, Muqaddas bitiklarda Egamiz shunday deb aytgan–ku:
“Men O‘zim qasos va o‘ch olaman.”* 20 Muqaddas bitiklarda yozilganiday qiling:

> “Dushmaning och bo‘lsa, ovqat ber,
> Chanqagan bo‘lsa, suv ichir.
> Shunda uning boshiga yonayotgan cho‘g‘ yiqqanday bo‘lasan.”*

21 Yomonlik sizni mag‘lub qilmasin, aksincha, siz yomonlikni yaxshilik bilan mag‘lub
eting.

13–BOB

Hokimiyatga bo‘ysunish haqida

1 Har bir inson o‘zining ustidan hukmron bo‘lgan hokimiyatga bo‘ysunsin. Chunki
Xudo buyurmagan hokimiyat yo‘q, mavjud bo‘lgan har bir hokimiyatni esa Xudo tayin
etgan. 2 Shuning uchun hokimiyatga qarshilik ko‘rsatgan odam Xudo o‘rnatgan tartibga

qarshi chiqqan bo‘ladi. Qarshilik qiluvchilar esa o‘zlarini o‘zlari hukmga duchor qiladilar. 3 Yaxshilik qilganlar emas, yomonlik qilganlar hukmronlardan qo‘rqishlari kerak. Hokimiyatdan qo‘rqmaslikni istaysanmi? Unda yaxshilik qilib yur, shunda boshliqning maqtoviga sazovor bo‘lasan. 4 Chunki boshliqlar odamlarning manfaati uchun Xudoning xizmatidadirlar. Yomon ish qilayotgan bo‘lsang, qo‘rqqin, chunki jazo berish qudrati boshliqlarga bekorga berilmagan. Ular Xudoning xizmatkorlari bo‘lib, yomonlik qiluvchilarga jazo beradilar, Xudoning g‘azabini amalga oshiradilar. 5 Shuning uchun faqatgina g‘azabga duchor bo‘lmaslik niyatida emas, balki vijdon haqi ham boshliqlarga bo‘ysunish kerak. 6 Mana shu sababdan soliq ham to‘lash lozim. Chunki amaldorlar o‘z vazifalarini bajarib, Xudoga xizmat qiladilar. 7 Ularga nima tegishli bo‘lsa, shuni bering: soliq yig‘uvchiga — soliq, boj oluvchiga — boj, obro‘ga loyiq bo‘lganga — obro‘, hurmatu ehtiromga loyiq bo‘lganga — hurmat–ehtirom.

Masihga ishonganlarga xos xatti–harakat

8 Hech kimdan hech narsa qarzdor bo‘lmanglar. Faqat mehr–muhabbatni ham farz, ham qarz deb bilinglar, chunki o‘zgani yaxshi ko‘rgan odam Xudoning qonunini bajargan bo‘ladi. 9 Axir, “Zino qilmang”, “Qotillik qilmang”, “O‘g‘rilik qilmang”*, “Birovlarning mulkiga ko‘z olaytirmang”* degan va qolgan hamma amrlar quyidagi bitta amrda mujassam–ku: “O‘zgani o‘zingizni sevganday seving.”* 10 Chunki o‘zgani yaxshi ko‘rgan odam unga yomonlik qilmaydi. Shunday qilib, boshqalarni yaxshi ko‘rish Xudoning qonunini to‘liq bajarish bilan barobardir.

11 Hozirgi vaqtni g‘animat deb bilinglar. Mana, uyqudan uyg‘onadigan paytingiz yetib keldi. Biz imon keltirgan paytdagidan ko‘ra, hozirgi vaqtda najotimizning to‘liq ro‘yobga chiqishi yaqinroqdir. 12 Tun o‘tib ketib, kunduz yaqinlashib qoldi. Shuning uchun qorong‘ilik ishlaridan voz kechaylik, nurga loyiq ishlarni qilishga bop bo‘lgan qurol–aslahalarni taqib olaylik. 13 Shahvatparastlik va fisq–fujurga berilmaylik, janjalkashlik va hasadgo‘ylik qilmaylik, aysh–ishrat va ichkilikbozlik bilan emas, kunduzga yarasha, odob bilan kun kechiraylik. 14 Rabbimiz Iso Masihga burkaninglar va bashariy tabiatingizning ehtiroslarini qondirishni hatto xayolingizga ham keltirmanglar.

14–BOB

Birodaringni hukm qilma

1 Imoni sust bo‘lganlarni* imonlilar qatoriga qabul qiling, ularning fikrlari yuzasidan bahslashmang. 2 Zero, ba’zilar, hamma narsani tanovul qilib bo‘ladi, deb ishonadi, ba’zi imoni sustlar esa faqat sabzavot yeydi. 3 Hamma narsani yeydigan odam, har qanday narsani yemaydigan odamdan nafratlanmasin. Shuningdek, har narsani ham yeyavermaydigan odam, hamma narsani yeydigan odamni hukm qilmasin, chunki Xudo uni imonlilar qatoriga qabul qilgan. 4 Sen kim bo‘libsanki, birovning xizmatkorini tergaysan? Xizmatkorning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ish qilganini uning xo‘jayini tasdiqlaydi–ku! Xo‘jayin xizmatkorni boshqargani uchun xizmatkor to‘g‘ri ish qiladi, bu xo‘jayin Rabbimiz Isodir*.

5 Ayrim odamlar bir kunni boshqa kundan ustunroq hisoblaydilar, yana boshqa bir odamlar esa kunlarning hammasini baravar deb hisoblaydilar. Har bir kishi o‘z fikrida mahkam tursin. 6 Biror kunni boshqasidan ustun deb bilgan odam Rabbimiz Isoni ulug‘lash uchun shunday qiladi*. Hamma narsani yeyish mumkin deb bilgan odam ham

Rabbimizni ulug‘lash uchun shunday fikrlaydi, chunki u ovqati uchun Xudoga shukur aytadi. Har narsani yemaydigan odam ham Rabbimizni ulug‘lash uchun shunday qiladi, u ham ovqati uchun Xudoga shukur aytadi! 7 Zero, hech birimiz faqat o‘zimiz uchun yashamaymiz, faqatgina o‘zimiz uchun o‘lmaymiz. 8 Axir, yashasak, hayotimiz bilan Rabbimiz Isoga shuhrat keltiramiz, o‘lsak ham, o‘z o‘limimiz bilan Rabbimizga shuhrat keltiramiz. Demak, yashasak ham, o‘lsak ham, Rabbimizga tegishlimiz. 9 Masih o‘liklarning hamda tiriklarning Rabbiysi bo‘lish uchun o‘ldi va o‘likdan tirildi. 10 Shunday ekan, nima uchun birodaringizni hukm qilyapsiz? Nima uchun birodaringizdan nafratlanyapsiz? Axir, hammamiz Xudoning* hukm kursisi oldida turib, javob beramiz–ku! 11 Muqaddas bitiklarda shunday yozilgan:

> “Egamiz shunday demoqda:
> «Men barhayot Xudo bo‘lganim haqi aytamanki*,
> Mening oldimda har bir odam tiz cho‘kadi,
> Har bir til Menga hamdu sano aytadi.»”*

12 Demak, har birimiz Xudoning oldida o‘zimiz uchun javobgarmiz.

Birodarlar bilan tinch–totuv yashash haqida

13 Shuning uchun endi bir–birimizni hukm qilmaylik. Aksincha, birodarlaringizning yo‘liga g‘ov qo‘ymaslikka, uni vasvasaga solmaslikka qaror qilinglar. 14 Men Rabbim Isoga tegishli bo‘lganim uchun qat’iy aminmanki, hech bir narsa o‘zidan–o‘zi harom emas. Ammo kimdir biror narsani harom hisoblasa, o‘sha narsa u uchun haromdir. 15 Agar sizlar biror narsa yeb, birodaringizni xafa qilayotgan bo‘lsangiz, mehr–muhabbat bilan ish tutmayotgan bo‘lasiz. Masih bu odam uchun o‘lgan, yegan ovqatingiz bilan o‘sha odamni halokatga yo‘liqtirmang. 16 Siz yaxshi deb bilgan narsa haqida boshqalar yomon gap gapirmasin. 17 Xudoning Shohligi ovqat va ichimlikdan emas, balki Muqaddas Ruh ato qiladigan solihlik, tinchlik va quvonchdan iborat. 18 Masihga shu tarzda xizmat qilgan odam Xudoni ham mamnun qiladi, insonlarning ham maqtoviga sazovor bo‘ladi.

19 Shuning uchun o‘zaro tinch–totuv yashash va bir–birimizning imonimizni mustahkamlash harakatida bo‘laylik. 20 Yegulikni deb, Xudoning ishiga putur yetkazmanglar! To‘g‘ri, hamma narsa halol, ammo biror narsani yeb, birodarini vasvasaga solgan odam noto‘g‘ri ish qilgan bo‘ladi. 21 Go‘sht yeyish, sharob ichish yoki shunga o‘xshash ishlar birorta birodarni vasvasaga solayotgan bo‘lsa, bularni qilmaslik yaxshidir.

22 Bu masaladagi fikringizni Xudoning O‘zi hukm qilsin. Tutgan yo‘lini hukm qilmagan odam baxtiyordir. 23 Biror narsani yeyish haqida ikkilanib turib, baribir yeyishga qaror qilgan odam hukmga duchor bo‘lishi muqarrar, chunki u o‘z ishonchiga ko‘ra, ish tutmagan bo‘ladi. Ishonchga asoslanmasdan qilingan har bir ish esa gunohdir*.

15–BOB

1 Biz, imoni kuchlilar, o‘zimizni mamnun qilishni ko‘zlamasdan, imoni sust bo‘lgan birodarlarning ojizligiga sabr–bardosh qilishimiz kerak. 2 Har birimiz o‘zganing manfaatini ko‘zlab, unga dalda berish niyatida uni mamnun qilishga harakat qilaylik. 3 Hattoki Masih ham O‘zini mamnun qilishni ko‘zlamagan, zero, Muqaddas bitiklarda

yozilganiday:

“Ey Xudo, Seni haqoratlaganlar Meni haqorat qilgan bo‘lar.”*

4 Muqaddas bitiklarda nimaiki yozilgan bo‘lsa, bizning ta’lim olishimiz uchun
yozilgan. Biz bu bitiklardan sabr va tasalli topib, umidimizda mahkam turishimiz lozim.
5 Iso Masihning yo‘lida yurar ekansiz, sabr va tasalli manbai bo‘lgan Xudoning O‘zi
sizlarga hamfikr bo‘lishni ato qilsin. 6 Shunda sizlar yakdillik bilan, bir ovozdan
Rabbimiz Iso Masihning Otasi — Xudoni ulug‘laysizlar.

Xushxabar barcha xalqlar uchundir

7 Masih sizlarni O‘z birodarlariday qabul qilgani kabi, sizlar ham bir–biringizni
birodarlarday qabul qiling. Shunday qilish Xudoga shuhrat keltiradi. 8 Men sizlarga
aytyapman: Xudoning sodiqligini ko‘rsatib, Uning ota–bobolarimizga bergan va’dalarini
bajarish uchun Iso Masih yahudiylarning xizmatkori bo‘lib keldi. 9 Masihning kelishidan
yana bir maqsadi shu ediki, g‘ayriyahudiylar ham Xudoning mehr–shafqati uchun Uni
ulug‘lasinlar. Muqaddas bitiklarda yozilganiday:

“Xalqlar ichra Senga hamdlar aytaman!
Seni kuylab sano aytaman!”*

10 Yana boshqa joyda shunday yozilgan: “Ey ellar, Uning xalqi bilan birga shodlaning.”*
11 Yana shunday deb ham yozilgan:

“Ey barcha xalqlar, Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin!
Ey jamiki elatlar, Uni olqishlanglar!”*

12 Ishayo kitobida ham quyidagicha yozilgan:

“Essay* tomiridan bir Zot kelib chiqar,
U xalqlar ustidan hukmronlik qilar,
Xalqlar esa Unga umid bog‘laydilar.”*

13 Imon yo‘lidan yurar ekansiz, umid manbai bo‘lgan Xudo qalbingizni sevinch va
tinchlikka to‘ldirsin, shunda sizlar Muqaddas Ruhning kuchi ila umidga boy bo‘lasizlar.

Pavlus g‘ayriyahudiylarga xizmat qilishga da’vat etilgan

14 Ey birodarlarim, men aminmanki, sizlar ezgulikka va ilm–ma’rifatga boysizlar, bir–
biringizga pand–nasihat qilishga qodirsizlar. 15 Shuning uchun ba’zi bir narsalarni
eslatay deb, sizlarga bu xatni yozishga jur’at qildim, chunki men Xudoning inoyati bilan
16 Iso Masihning xizmatkori etib tayinlanganman. Xudoning Xushxabarini aytib, ruhoniy
sifatida g‘ayriyahudiylarga xizmat qilmoqdaman. Buning natijasida, g‘ayriyahudiylar
Xudoga manzur bo‘ladigan, Muqaddas Ruh orqali tabarruk qilingan qurbonlikday
Xudoga tortiq etilmoqdalar.
17 Shunday qilib, Iso Masih tufayli Xudoning yo‘lida qilgan ishlarim bilan maqtansam
bo‘ladi. 18-19 Kuchli mo‘jizalaru alomatlar bilan, mening aytganlarim va qilganlarim
orqali Masih g‘ayriyahudiylarni Xudoga itoat qilish yo‘liga boshladi. Ammo Iso
Masihning men orqali qilgan ishlaridan boshqa narsalar haqida gapirishga jur’at

etmayman, chunki bularning hammasi Xudo Ruhining qudrati ila sodir bo‘ldi. Shunday
qilib, men Quddusdan boshlab, to Illurikon hududiga* qadar Masihning Xushxabarini
yoyib, o‘z vazifamni bajardim. 20 Shu bilan birga, men boshqalarning poydevori ustiga
bino qurmayin deb, hali Masihning nomi ovoza qilinmagan yerlarda Xushxabarni yoyish
uchun jon kuydiryapman. 21 Muqaddas bitiklarda yozilganiday:

> “U haqda xabarsiz bo‘lganlar endi ko‘radilar,
> U haqda eshitmaganlar endi anglab yetadilar.”*

Pavlusning Rimga borish niyati

22 Xushxabarni yoyish xizmatim tufayli anchadan beri sizlarning oldingizga bora
olganim yo‘q. 23 Endi esa bu joylarda menga boshqa ish qolmagan. Men ko‘p yillardan
beri sizlarni ko‘rishni orzu qilaman. 24 Shuning uchun Ispaniyaga borayotganimda,
yo‘lda sizlarni ko‘rib o‘tmoqchiman, bir oz bo‘lsa–da, diydoringizga to‘yganimdan keyin,
yo‘limda davom etishim uchun kerakli bo‘lgan zarur ehtiyojimni qondirarsizlar degan
umiddaman.
25 Hozircha men Xudo azizlariga yordam bergani Quddusga ketyapman*. 26 Chunki
Makedoniya va Axayadagi birodarlar mablag‘ yig‘ib, Quddusdagi kambag‘al birodarlarga
yordam berishga qaror qildilar. 27 Buni ham qarz, ham farz deb bilganlari uchun
xursandchilik bilan shunday qildilar. Axir, g‘ayriyahudiylar yahudiylar tufayli ruhiy
ne’matlarga sazovor bo‘ldilar–da, shuning uchun ular o‘z moddiy boyliklarini yahudiylar
bilan baham ko‘rishni loyiq topdilar. 28 Men bu ishni bajarib, to‘plangan mablag‘ni ularga
topshirganimdan keyin, sizlarning oldingizda to‘xtab o‘taman. So‘ngra Ispaniyaga
ketaman. 29 Aminmanki, men sizlarni ko‘rishga borganimda, biz birgalikda Masih
Xushxabari keltiradigan qut–barakalarni to‘liq baham ko‘ramiz.
30 Ey birodarlarim, Rabbimiz Iso Masih va Muqaddas Ruh ato qiladigan mehr–
muhabbat haqi sizlarga yolvoraman: men uchun birgalikda Xudoga ibodat qilaylik.
31 Yahudiyadagi imonsizlarning qo‘lidan qutulishim uchun va Quddusdagi xizmatim u
yerdagi Xudoning azizlariga ma’qul bo‘lishi uchun ibodat qilinglar. 32 Xudo xohlasa, men
shod–xurramlik bilan sizlarning oldingizga boraman, sizlar bilan birga bo‘lganimdan
qalbim orom topadi. 33 Tinchlik manbai bo‘lgan Xudo hammangizga yor bo‘lsin. Omin!

16–BOB

So‘nggi salomlar

1 Men Kenxreya shahridagi* jamoatda xizmat qilayotgan opamiz* Fivani sizlarga
tanishtiray*. 2 Sizlar Xudoning azizlarisiz, shuning uchun Rabbimiz Iso haqi Fivani
mehmondo‘stlik bilan qabul qilinglar. U nimaga muhtoj bo‘lsa, yordam beringlar. Zero, u
ko‘plarga, ayniqsa, menga ko‘p yordam ko‘rsatgan.
3 Priskilla va Akilga salom aytinglar, ular men qatori Iso Masihga xizmat qilyaptilar.
4 Ular mening jonimni asrab qolish uchun o‘zlarini o‘lim xavfi ostiga qo‘ydilar. Nafaqat
men, balki g‘ayriyahudiylardan iborat bo‘lgan jamoatlar ham ulardan minnatdorlar.
Ularning uyida yig‘iladigan jamoatga ham salom aytib qo‘yinglar. 5 Asiya viloyatidagilar
orasida birinchi bo‘lib Masihga imon keltirgan aziz do‘stim Epanetusga salom ayting.
6 Sizlar* uchun ko‘p mehnat qilgan Maryamga salom aytinglar. 7 Birodarimiz Andronikus
va opamiz Yuniyaga* salom aytinglar. Ular men bilan birga hibsda bo‘lgan

qondoshlarimdir. Bu obro‘li havoriylar* mendan oldin Masihga imon keltirgan edilar.
8 Rabbimiz Iso tufayli mening aziz do‘stim bo‘lib qolgan Ampliatusga salom ayting.
9 Masih xizmatida hamkorimiz bo‘lgan Urbanus va aziz do‘stim Staxisga salom ayting.
10 Masihga sodiqligini isbotlagan Apellisga salom ayting. Aristovulus xonadoniga ham
salom aytib qo‘ying. 11 Qondoshim Hirodionga salom ayting. Narkis xonadonidagi
Rabbimiz Isoga tegishli bo‘lganlarga ham salom aytib qo‘ying. 12 Rabbimizga jonu dili
bilan xizmat qilayotgan opalarimiz Trifena bilan Trifosaga salom aytinglar. Rabbimizga
astoydil xizmat qilayotgan aziz opamiz Persisaga ham salom ayting. 13 Rabbimizning
tanlangan xizmatkori Rufusga va menga onaday bo‘lib qolgan uning onasiga ham salom
ayting. 14 Asinkritus, Flegon, Xermes, Patrovas, Xarmas va ular bilan birga bo‘lgan
birodarlarga salom aytinglar. 15 Filologus bilan Yuliyaga, Nerus va uning singlisiga*,
Olimpas hamda ular bilan birga bo‘lgan barcha aziz birodarlarga salom aytinglar. 16 Bir–
biringiz bilan o‘pishib ko‘rishinglar. Barcha Masih jamoatlari sizlarga salom
yo‘llayaptilar.

So‘nggi pand–nasihatlar va tilaklar

17 Sizlarga yolvoraman, olgan ta’limotingizdan aynitib, orangizga nizo va g‘ulg‘ula
soladigan odamlardan ehtiyot bo‘linglar. Ulardan o‘zingizni olib qochinglar. 18 Axir,
bunday odamlar Rabbimiz Iso Masihning emas, balki o‘z nafsining qulidirlar. Ular shirin
so‘zlaru xushomadgo‘ylik bilan sofdil insonlarni yo‘ldan ozdiradilar. 19 Sizlarning
Xudoga bo‘lgan itoatkorligingiz hammaga ma’lum. Men sizlardan juda xursandman,
ammo yaxshilikka kelganda dono, yomonlikka kelganda esa norasida bo‘lishingizni
istayman. 20 Tinchlik manbai bo‘lgan Xudoning O‘zi tez orada shaytonni oyoqlaringiz
ostida ezib tashlaydi. Rabbimiz Isoning inoyati sizlarga yor bo‘lsin.

21 Mening hamkorim Timo‘tiy hamda qondoshlarim Lukiyos, Yason va Sosipatrus
sizlarga salom yo‘llayaptilar. 22 Bu maktubni qog‘ozga tushirayotgan, Rabbimizning quli
men — Tertiyusdan* ham sizlarga salom. 23-24 Butun jamoatga mehmondo‘stlik
ko‘rsatadigan va hozirda mening mezbonim bo‘lgan Gayus sizlarga salom aytyapti.
Shahar xazinaboni Erastus va birodarimiz Kvartus ham salom yo‘llayaptilar*.

25 Men bayon qilayotgan Xushxabarga, ya’ni Iso Masihning Xushxabariga binoan
sizlarni imonda sobit qadam qilishga qodir bo‘lgan Xudoga hamdu sanolar bo‘lsin! Bu
Xushxabar qadimdan sir tutilgan edi, endi esa u ochildi. 26 Ha, bu sir oshkor qilindi va
payg‘ambarlarning bitiklari* orqali, Xudoning amri bo‘yicha barcha xalqlarga ayon
bo‘ldi, toki ular ham imon orqali Xudoga itoatkor bo‘lsinlar. 27 Donolik sohibi bo‘lgan
yagona Xudoga Iso Masih orqali to abad shon–sharaflar bo‘lsin! Omin!*

IZOHLAR

1:2 *Muqaddas bitiklar* — odatda Eski Ahd kitoblari to‘plami shu nom bilan ataladi.

1:4 *Shu orqali…isbotlandi* — yoki *Shu orqali Muqaddas Ruh Iso Masih Xudoning qudratli O‘g‘li ekanligini isbotladi* yoxud *Shu orqali Iso Masih ruhan Xudoning qudratli O‘g‘li ekanligi isbotlandi*.

1:5 *men* — yunoncha matnda *biz*. Yozuvlarda bu olmosh ba’zan muallif tomonidan o‘ziga nisbatan ishlatilgan.

1:14 *madaniyatliyu madaniyatsizlar* — yunoncha matnda *yunonlaru varvarlar*. O‘sha davrda *yunonlar* so‘zi (shu bobning 16–oyati izohiga qarang) madaniyatli xalqlarga nisbatan ishlatilgan. Boshqa xalqlarga nisbatan esa varvarlar so‘zi ishlatilardi. Varvar so‘zi madaniyatsiz degan ma’noni bildiradi (Pavlus o‘zi yahudiy bo‘lgani uchun yunon tilini bilmagan yahudiylarni madaniyatsiz deb hisoblamasdi).

1:16 *g‘ayriyahudiy* — yunoncha matnda *yunon*. O‘sha davrda *yunon* so‘zi millati yunon bo‘lgan odamga nisbatan ham, yunon tilida gapirib, yunon urf–odatlariga rioya qiladigan odamga nisbatan ham ishlatilgan.

1:17 *…oshkor qilinganki, Xudo insonlarni imon orqali, ha, faqatgina imon orqali oqlaydi…* — yana 3:21-22, 30 ga va Filippiliklar 3:8-9 ga qarang.

1:17 Xabaqquq 2:4 ga qarang.

2:12 *Xudoning qonuni* — Eski Ahdga, xususan, Tavrotga ishora.

2:17 *qonun* — shu bobning 12–oyati izohiga qarang.

2:22 *…kufrlik qilasanmi?!* — yunoncha matnda *…butxonalarni talaysanmi?!* Pavlus majoziy ma’noda ularning ikkiyuzlamachiligiga ishora qilayotgan bo‘lishi mumkin. Ammo ba’zi olimlarning fikri bo‘yicha, Pavlus bu o‘rinda butxonalardan o‘g‘irlangan butlarni sotishdan yoki o‘g‘irlangan butlardan olingan metallarni sotishdan keladigan foydaga ishora qilyapti.

2:24 Muallif bu o‘rinda Ishayo 52:5 ning qadimiy yunoncha tarjimasidan foydalangan.

2:25 *Sunnat* — Xudoning O‘z xalqi bilan qilgan ahd belgisi (Ibtido 17:9-14 ga qarang). Sunnat yahudiylarning Xudoga sodiqligini va Uning tanlagan xalqiga tegishli ekanini ko‘rsatadi.

3:1 *sunnat* — 2:25 izohiga qarang.

3:4 Zabur 50:6 ga qarang.

3:10-12 Zabur 13:1-3, 52:2-4 ga qarang. Yana Voiz 7:20 ga qarang.

3:13 Zabur 5:10, 139:4 ga qarang.

3:14 Zabur 9:28 ga qarang.

3:15-17 Ishayo 59:7-8 ga qarang.

3:18 Zabur 35:2 ga qarang.

3:21 *Tavrot va Payg‘ambarlar bitiklari* — odatda yahudiylar, Eski Ahd to‘plami uch qismdan iborat, deb aytadilar. Bu uch qism quyidagilardir: Tavrot (Musoning qonuni

degan nom bilan ham yuritiladi), Payg‘ambarlar bitiklari (uning tarkibiga ba’zi tarixiy kitoblar ham kirgan) va Bitiklar (Zabur bu qismning birinchi kitobidir). Yahudiylar ba’zan dastlabki ikki qism “Tavrot va Payg‘ambarlar bitiklari” deganda butun Eski Ahd to‘plamini nazarda tutadilar.

3:25-26 *...Xudo bilan yarashdi* — bu ibora yunon tilidagi *hilasterion* so‘zining tarjimasidir. Odatda bu so‘z Xudo bilan yarashish uchun qilinadigan savob ishni bildiradi. *Hilasterion* so‘zi Ahd sandig‘ining qopqog‘iga nisbatan Yangi Ahdda bir marta (Ibroniylar 9:5 ga qarang), Eski Ahdning qadimiy yunoncha tarjimasida esa bir necha marta ishlatilgan. Poklanish kunida odamlarni gunohdan poklash uchun qurbonlik qoni Ahd sandig‘ining qopqog‘iga sachratilardi (Levilar 16:15-16 ga qarang). Mana shunga asoslanib ba’zi olimlar, Pavlus bu o‘rinda gunohdan poklanadigan joy haqida so‘z yuritib, majoziy ma’noda Iso Masihga ishora qilyapti, deb taxmin qiladilar. Ammo ayni paytda Pavlus mazkur kitobda, Xudo gunohdan nafratlanadi, gunohga qarshi g‘azabini sochadi deb ta’lim beradi (1:18, 2:5 ga qarang). Shuning uchun bu o‘rinda Pavlus Iso Masih bizni Xudo bilan yarashtiradigan Najotkor ekanini nazarda tutgan, deb taxmin qilish xato bo‘lmaydi. Chunki boshimizga tushishi kerak bo‘lgan jazoni Iso Masih o‘ziga olgan va shu yo‘l bilan Xudoning gunohkorlarga qaratilgan g‘azabini bosgan (5:9-11 ga va 2 Korinfliklar 5:21 ga qarang).

4:3 Ibtido 15:6 ga qarang.

4:7-8 Zabur 31:1-2 ga qarang.

4:9 *sunnat qilinganlar* — ya’ni yahudiylar. 2:25 izohiga qarang.

4:9 *sunnatsizlar* — ya’ni g‘ayriyahudiylar.

4:17 Ibtido 17:5 ga qarang.

4:18 Ibtido 15:5 ga qarang.

7:6 *...eskichasi...yangichasi...* — Xudo Muso orqali bergan ahdga (Chiqish 19:1-8, 24:1-8 ga qarang) va yangi ahdga ishora (Yeremiyo 31:31-34, 32:39-40, Hizqiyol 11:19-20, 36:26-27 ga qarang). Eski ahdga muvofiq, inson Musoning qonuniga itoat qilib yashaydi. Yangi ahdga muvofiq esa inson Muqaddas Ruhning amri bilan yashaydi. Yana 2:17-29 ga va 2 Korinfliklar 3:3-18 ga qarang.

7:7 Chiqish 20:17 ga qarang.

8:1 *Iso Masihga tegishli bo‘lganlar* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *Iso Masihga tegishli bo‘lganlar, ya’ni bashariy tabiatning emas, balki Ruhning yetakchiligida yashayotganlar*.

8:2 *biz* — ba’zi yunon qo‘lyozmalaridan. Yunoncha matnda *sen*. Bu o‘rinda qaysi olmosh ishlatilganidan qat’i nazar, Pavlus Iso Masihga imon keltirgan har bir insonni nazarda tutadi.

8:3 *...gunohning qudratini yo‘q qildi* — yoki *...gunoh uchun Uni qurbonlikka bag‘ishladi*.

8:10 *...Xudoning Ruhi sizlar uchun hayot manbaidir...* — yoki *...ruhingiz tirikdir....*

8:15 *“Otajon”* — yunoncha matnda *“Abba, Ota”*. Abba so‘zi oramiychada ota deganidir. Xudo imonlilar bilan nihoyatda yaqin munosabatda bo‘lgani uchun, ular Xudoga “Ota” deb murojaat qiladilar. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi XUDONING

NOMLARI iborasi ostida berilgan OTA so‘ziga qarang.

8:20-21 *...mavjudot behudalikka mubtalo bo‘lgan* — bu o‘rinda Pavlus Ibtido 3:17-19 ni nazarda tutgan.

8:20-21 *Shunday bo‘lsa–da...umid bor* — bu o‘rinda Pavlus Ibtido 3:15 da aytib o‘tilgan va’dani nazarda tutgan bo‘lishi mumkin.

8:29 *...O‘g‘il ko‘p birodarlar orasida to‘ng‘ich bo‘lsin* — Iso Masih o‘likdan tirilib, Xudoning ulug‘vorligidan bahramand bo‘lgan birinchi odam edi. Shunga o‘xshab, Masihga ishonganlar ham o‘likdan tiriladilar va Uning ulug‘vorligidan bahramand bo‘ladilar (shu bobning 11–oyatiga va Filippiliklar 3:21, 1 Korinfliklar 15:20, 49 ga qarang).

8:34 *Xudoning o‘ng tomoni* — Zabur 109:1 ga qarang. O‘ng tomon muruvvat va baraka o‘rni deb hisoblangan.

8:35 *Masih* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *Xudo*.

8:36 Zabur 43:23 ga qarang.

9:4 *farzand* — Chiqish 4:22-23, Yeremiyo 31:9, Xo‘sheya 11:1 ga qarang.

9:4 *ahdlar* — Xudoning Isroil xalqi va ularning ota–bobolari bilan qilgan ahdlariga ishora (Ibtido 15:18, 17:1-14, Chiqish 19:1-8, 2 Shohlar 7:8-16, Yeremiyo 31:31-34 ga qarang).

9:5 *Butun borliq ustidan hukmdor bo‘lgan Xudoga abadiy hamdu sanolar bo‘lsin* — yoki *Masih butun borliq ustidan Hukmdor, abadiy hamdu sanolarga sazovor bo‘lgan Xudodir*.

9:7 Ibtido 21:12 ga qarang.

9:8 *...jismoniy jihatdan...Xudo bergan va’daning natijasida...* — Ibrohimning o‘g‘illari Ismoil va Is’hoqning qay tarzda dunyoga kelganiga ishora (Ibtido 16:1-4, 15-16, 17:15-22, 21:1-7, Galatiyaliklar 4:22-23 ga qarang).

9:9 Ibtido 18:10 ga qarang.

9:11-12 Ibtido 25:23 ga qarang.

9:13 Malaki 1:2-3 ga qarang.

9:15 Chiqish 33:19 ga qarang.

9:17 Chiqish 9:16 ga qarang.

9:25 Xo‘sheya 2:23 ga qarang.

9:26 Xo‘sheya 1:10 ga qarang.

9:27-28 Muallif bu o‘rinda Ishayo 10:22-23 ning qadimiy yunoncha tarjimasidan foydalangan.

9:29 *Sado‘m shahri...G‘amo‘ra shahri* — aholisining o‘ta buzuqligi oqibatida Egamiz vayron qilgan ikkita shahar (Ibtido 18:16-19:28 ga qarang).

9:29 Ishayo 1:9 ga qarang.

9:33 *Quddus* — yunoncha matnda *Sion*. Quddusdagi Ma’bad qurilgan tepalik Sion tog‘i deb atalgan. Eski Ahddagi she’riy parchalarda va payg‘ambarlar bitiklarida Sion so‘zi ko‘pincha Quddus shahriga yoki Xudoning xalqiga nisbatan ishlatilgan. To‘liqroq

ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi SION so‘ziga qarang.

9:33 Ishayo 8:14, 28:16 ga qarang.

9:33 *Bu tosh Iso Masihdir* — yana 1 Butrus 2:4-8 ga qarang.

10:5 Levilar 18:5 ga qarang.

10:6-7 *…deb yozilgan* — bu o‘rinda Pavlus Qonunlar 30:12-13 ni nazarda tutgan.

10:6-7 *o‘liklar diyori* — yahudiylar bu joyni, yer ostidagi tubsiz chuqurlik, marhumlar boradigan qorong‘i joy, deb tushunardi.

10:8 Qonunlar 30:14 ga qarang.

10:11 Ishayo 28:16 ga qarang.

10:13 Yo‘el 2:32 ga qarang.

10:15 Ishayo 52:7 ga qarang.

10:16 Ishayo 53:1 ga qarang.

10:18 Zabur 18:5 ga qarang.

10:19 Qonunlar 32:21 ga qarang.

10:20 Ishayo 65:1 ga qarang.

10:21 Ishayo 65:2 ga qarang.

11:3 3 Shohlar 19:10 ga qarang.

11:4 *Baal* — Kan’ondagi xalqlar sajda qilgan hosildorlik xudosi bo‘lib, erkak qiyofasida tasavvur qilingan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi BAAL so‘ziga qarang.

11:4 3 Shohlar 19:18 ga qarang.

11:6 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida quyidagi so‘zlar oyatga qo‘shimcha qilingan: *Ammo ular savob ishlari tufayli tanlangan bo‘lsa, Xudoning inoyatiga o‘rin qolmas edi va savob ham savob bo‘lmas edi*.

11:8 *…Muqaddas bitiklarda yozilganday* — bu o‘rinda Pavlus Qonunlar 29:4, Ishayo 29:10 ni nazarda tutgan.

11:9-10 Muallif bu o‘rinda Zabur 68:23-24 ning qadimiy yunoncha tarjimasidan foydalangan.

11:26 *Muqaddas bitiklarda Xudo shunday degan–ku…* — bu o‘rinda Pavlus Ishayo 27:9, 59:20-21 ni nazarda tutgan.

11:26 *Quddus* — yunoncha matnda *Sion*. 9:33 ning birinchi izohiga qarang.

11:34 *Kim…Unga maslahat bera oladi?!* — muallif bu o‘rinda Ishayo 40:13 ning qadimiy yunoncha tarjimasidan foydalangan.

11:35 *Kim…undan qarzdor bo‘lsa?!* — bu o‘rinda Pavlus Ayub 41:3 ni nazarda tutgan.

12:19 Qonunlar 32:35 ga qarang.

12:20 Hikmatlar 25:21-22 ga qarang.

13:9 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida shu jumladan keyin quyidagi amr qo‘shimcha qilingan: *“Yolg‘on guvohlik bermang”*. Chiqish 20:16 ga qarang.

13:9 Chiqish 20:13-15, 17 ga qarang.

13:9 Levilar 19:18 ga qarang.

14:1 *Imoni sust bo‘lganlar* — Rim jamoatidagi Iso Masihga ishongan yahudiylarga ishora bo‘lishi mumkin. Rim jamoati asosan g‘ayriyahudiylardan iborat edi. Bu jamoatdagi yahudiylar Tavrotdagi qonun–qoidalarga (oziq–ovqatga, Shabbat kuniga oid va hokazolarga) rioya qilmasalar, o‘zlarini noqulay his qilardilar. Pavlus “imoni sust” deganda ularning qonun–qoidalar yuzasidan vijdonan qaror chiqara olmasliklarini nazarda tutadi. Jamoatdagi ba’zilar esa imoni tufayli har qanday oziq–ovqatni yeyish mumkin deb bilardi va bundan ularning vijdoni qiynalmasdi. Pavlus, bu ikki toifa imonlilar ham Masihga birday bag‘ishlangan, deb tasdiqlaydi (yana shu bobning 5-6–oyatlariga qarang).

14:4 *Rabbimiz Iso* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *Xudo*.

14:6 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida shu jumladan keyin quyidagi so‘zlar qo‘shimcha qilingan: *Shuningdek, kunlarga e’tibor bermaydigan ham Rabbimizni ulug‘lash niyatida shunday qiladi*.

14:10 *Xudo* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *Masih*.

14:11 Ishayo 49:18 ga qarang.

14:11 Ishayo 45:23 ga qarang.

14:23 Yunoncha matndan. Bu matndagi 16:25-27 oyatlar ba’zi yunon qo‘lyozmalarida mazkur bobga 24-26–oyatlar bo‘lib, qo‘shimcha qilingan.

15:3 Zabur 68:10 ga qarang.

15:9 Zabur 17:50 ga qarang.

15:10 Qonunlar 32:43 ga qarang.

15:11 Zabur 116:1 ga qarang.

15:12 *Essay* — shoh Dovudning otasi, Iso Masihning bobokaloni.

15:12 Muallif bu o‘rinda Ishayo 11:10 ning qadimiy yunoncha tarjimasidan foydalangan.

15:18-19 *Illurikon hududi* — Rimdan shimoli–sharqda, hozirgi Adriatika dengizining sharqiy qirg‘og‘ida joylashgan.

15:21 Muallif bu o‘rinda Ishayo 52:15 ning qadimiy yunoncha tarjimasidan foydalangan.

15:25 *...Xudo azizlariga yordam bergani Quddusga ketyapman* — Quddusdagi muhtojlikda qolgan masihiylarga yordam berish niyatida Pavlus pul yig‘ayotgan edi (1 Korinfliklar 16:1-4, 2 Korinfliklar 8:1-9:5, Galatiyaliklar 2:10 ga qarang). Ularning muhtojliklariga quvg‘inlar yoki qurg‘oqchilik sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkin (Havoriylar 8:1, 11:28 ga qarang).

16:1 *Kenxreya shahri* — bandargoh shahar bo‘lib, Korinfdan qariyb 10 kilometr sharqda joylashgan.

16:1 *opamiz* — ularning tug‘ishgan opasi emas, balki imonli ayollarga shunday murojaat qilingan (shu bobning 7, 12–oyatida ham bor).

16:1 *...opamiz Fivani sizlarga tanishtiray* — bu maktubni Rimdagi imonlilarga Fiva olib borgan bo‘lishi mumkin.

16:6 *Sizlar* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *biz*.

16:7 *opamiz Yuniya* — yoki *birodarimiz Yuniyas*, ammo ko‘p olimlarning taxmini bo‘yicha bu yunoncha ismi ayol kishiga nisbatan ishlatilgan. Yuniya Andronikusning xotini yoki opasi yo singlisi bo‘lishi mumkin.

16:7 *Bu obro‘li havoriylar...* — yoki *Ular havoriylar orasida nom chiqarganlar va....*

16:15 *singlisi* — yoki *opasi*.

16:22 *Bu maktubni qog‘ozga tushirayotgan...Tertiyus...* — Pavlusning maktubini shu kotib yozgan. Qadimgi paytlarda bu odatiy hol edi.

16:23-24 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida quyidagi so‘zlar 24–oyatni tashkil etib, qo‘shimcha qilingan: *Rabbimiz Iso Masihning inoyati hammangizga yor bo‘lsin. Omin.* Yana shu bobning 25-27–oyatlari izohiga qarang.

16:26 *payg‘ambarlarning bitiklari* — Eski Ahd to‘plami nazarda tutilgan.

16:25-27 Yunoncha matndan. Shu bobning 25-27–oyatlari ba’zi yunon qo‘lyozmalarida 14:24-26 oyatlar bo‘lib kelgan.

PAVLUSNING
KORINFLIKLARGA
BIRINCHI MAKTUBI

Kirish

Mazkur maktub muallifi havoriy Pavlusdir. Bu maktub Korinfdagi jamoatga yozilgan va odatda “Korinfliklarga birinchi maktub” deb ataladi. Korinf qadimiy Yunonistonda muhim bandargoh shahar edi. Birinchi asr davomida Korinf shahri Rim imperiyasiga qaram edi. O‘sha davrda Korinf aholisi turli millat vakillaridan tashkil topgan bo‘lib, u yerda ko‘p yahudiylar istiqomat qilar edi. Bu shahar rivojlangan savdo–sotig‘i, o‘ziga xos madaniyati, avj olgan axloqsizligi va turli diniy oqimlar bilan nom chiqargan edi. Pavlus Korinfdagi yahudiylarga ham, g‘ayriyahudiylarga ham Xushxabar aytib, u yerdagi jamoatga asos solgan edi.

Korinf jamoatida ko‘plab muammolar bor edi, masalan, masihiylar har xil guruhlarga bo‘linib, o‘zaro ko‘p bahslashar edilar, jamoatning ba’zi a’zolari zino qilar edi. Shu bois, Pavlus jamoatga mazkur maktubini yo‘llab, ularga tanbeh beradi va to‘g‘ri yo‘lga soladi. Shu bilan birga imonlilarning ba’zi savollariga javob bergan holda, nikoh, butlarga keltirilgan qurbonlik go‘shtini yeyish yoki yemaslik, ibodat paytida ayollarning ro‘mol o‘rashi, Rabbimizni xotirlab non sindirish, ruhiy in’omlar kabi mavzularni yoritib beradi. Pavlus Xushxabarning asl mohiyatini Iso Masihning o‘likdan tirilishiga bevosita bog‘laydi. Shu sababdan bu mavzuni batafsil yoritadi. Masih qaytib kelganda, Xudoga tegishli bo‘lganlar tirilishini, o‘lim barham topishini, foniy tana mangu tanaga o‘zgarishini turli misollar orqali tushuntiradi.

Bu maktubning 13–bobi Muqaddas Kitobdagi eng muhim boblardan biri hisoblanadi. Bu bobda Pavlus sevgining asl ma’nosini ochib beradi, bunday sevgini amalda qo‘llagan jamoat barcha muammolardan xoli bo‘lishini uqtiradi.

1–BOB

Duoyi salom

1 Xudoning irodasi bilan Iso Masihning havoriysi bo‘lish uchun da’vat qilingan men
— Pavlusdan va birodarimiz Sostenisdan* 2 Xudoning Korinf shahridagi jamoatiga
salom! Xudo sizlarni O‘zining aziz xalqi bo‘lishga da’vat qilib, Iso Masih orqali O‘zi uchun
ajratib olgan. Shunday qilib, har yerda Rabbimiz Iso Masihga sajda qilayotganlarning
qatoriga qo‘shildingiz. Iso Masih ularning ham, bizning ham Rabbimizdir.
3 Otamiz Xudo va Rabbimiz Iso Masih sizlarga inoyatu tinchlik ato etsin.

Xudoning ko‘rsatgan iltifoti

4 Xudoyim sizlarga Iso Masih orqali O‘z inoyatini berdi. Shu bois doimo Xudoyimga
sizlar uchun shukur aytaman. 5 Iso Masih orqali Xudo sizlarni har qanday kalomda
mohir, ilmu ma’rifatda boy qildi. 6 Shu tariqa men sizlarga aytgan Masih haqidagi xabar
haqiqat ekanligi isbotlandi. 7 Mana endi Rabbimiz Iso Masihning kelishini intizorlik bilan
kutar ekansiz, Muqaddas Ruh beradigan in’omlardan benasib emassizlar. 8 Rabbimiz Iso

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

Masih kelgan kunda sizlar aybsiz bo‘lishingiz uchun Xudo sizlarni oxirigacha qo‘llab–quvvatlaydi. 9 Sizlarni O‘z O‘g‘li Rabbimiz Iso Masih bilan muloqot qilishga chorlagan Xudo sadoqatlidir.

Imonlilar jamoatidagi nizolar

10 Ey birodarlarim, Rabbimiz Iso Masih nomi bilan sizlarga iltijo qilaman: hammangiz o‘zaro ahil yashanglar. Orangizda nizolarga yo‘l qo‘ymay, fikr–xayolda tamomila yakdil bo‘linglar. 11 Zero, ey birodarlarim, sizlarning orangizda janjallar borligi haqida opamiz* Xloisning xonadonidagilar menga xabar berishdi. 12 Men quyidagilarni nazarda tutyapman: orangizda ba’zilar: “Men Pavlusning shogirdiman”, yana ba’zilar esa: “Men Apollosning* shogirdiman”, yana boshqalar: “Men Butrusning* shogirdiman”, yana bir xil odamlar: “Men Masihning shogirdiman”, deb aytayotgan emish. 13 Nima, Masih bo‘linganmi? Yoki sizlar uchun Pavlus xochga mixlanganmi? Nahotki Pavlusning nomi bilan suvga cho‘mdirilgan bo‘lsangiz?! 14 Xudoga shukurki, men sizlarning orangizdan Krispus va Gayusdan boshqa hech kimni suvga cho‘mdirmadim. 15 Hech kim: “Men Pavlusning nomi bilan cho‘mdirilganman”, deya olmaydi. 16 To‘g‘ri, men Stefanasning uy ahlini ham suvga cho‘mdirgan edim, ammo bulardan boshqa hech bir odamni suvga cho‘mdirganim esimda yo‘q. 17 Zotan, Masih meni, odamlarni suvga cho‘mdirsin deb emas, balki Xushxabarni yoysin deb yubordi. Menga bu Xushxabarni insonlarga oid bo‘lgan donolik bilan yoyish buyurilmadi. Bo‘lmasa, Masihning xochdagi o‘limi haqidagi xabarning kuchi yo‘qolgan bo‘lardi.

Masih — Xudoning hikmati va qudrati

18 Xoch haqidagi bu xabar halok bo‘layotganlarga telbalikday tuyuladi. Ammo biz — najot topayotganlar uchun esa u Xudoning qudratidir. 19 Axir, Muqaddas bitiklarda yozilgan–ku:

> “Men donolarni donoligidan mahrum qilaman,
> Idroklilarni idrokidan ayiraman.”*

20 Donolar qani? Tafsirchilar va bu dunyoning faylasuflari qayerda? Xudo bu dunyoning hikmatini aqlsizlikka aylantirdi–ku, axir! 21 Modomiki, Xudoning hikmati bo‘yicha bu dunyo o‘z aql–zakovati bilan Xudoni tanib–bilmagan ekan, tentaklikday tuyulgan xabarga ishonganlarni Xudo qutqarishni lozim ko‘rdi. 22 Mana, yahudiylar mo‘jizalar talab qiladilar, yunonlar esa donolik payida yuradilar. 23 Biz esa faqat xochga mixlangan Masih* haqidagi xabarni yoymoqdamiz. Bu xabar yahudiylar uchun haqorat bo‘lsa, g‘ayriyahudiylar* uchun telbalikdir. 24 Biroq Xudo da’vat qilgan yahudiy va g‘ayriyahudiylar* uchun Masih xochi Xudoning qudrati va hikmatidir. 25 Zero, Xudoning “aqlsizligi” inson donoligidan ustundir, Xudoning “zaifligi” inson qudratidan kuchliroqdir.

26 Ey birodarlarim, Xudo sizlarni da’vat qilganda qanday odam edingizlar, bir esga oling–chi! Insoniy nuqtayi nazardan qaraganda, orangizda dono, qudratli yoki olijanoblar ko‘p emasdi. 27 Lekin Xudo donolarni sharmanda qilish uchun dunyodagi aqlsiz deb hisoblanganlarni tanladi. U qudratlilarni sharmanda qilish uchun dunyodagi zaif hisoblanganlarni tanladi. 28 Dunyodagi e’tiborli hisoblanganlar arzimas bo‘lib qolsin deb, Xudo bu dunyodagi e’tiborsiz va kamsitilgan, ya’ni ahamiyatsiz deb

hisoblanganlarni tanladi. 29 Shunday qilib, hech bir inson Xudoning oldida maqtana olmaydi. 30 Iso Masih orqali Xudo bizga yangi hayot ato etib, U orqali donolikka ega bo‘lganimizni namoyon qildi. Biz Masihning sharofati bilan oqlanib, gunohdan xalos bo‘ldik, Xudoning aziz xalqi bo‘ldik. 31 Shunday qilib, Muqaddas bitiklarda o‘rgatilganday, kim maqtanmoqchi bo‘lsa, Egamizni bilaman, deb maqtansin*.

2–BOB

Pavlus bayon etgan xabarning asosi

1 Ey birodarlar, men sizlarga Xudoning sirli rejasini* e’lon qilishga borganimda, so‘zamollik va insoniy donolik bilan gapirmadim. 2 Orangizda bo‘lganimda, Iso Masih va Uning xochga mixlanganidan boshqa hech narsa haqida gapirmaslikka qaror qildim. 3 Oldingizga zaifligu qo‘rquv hissi bilan titrab bordim. 4 Men sizlarga Xushxabar aytib, va’z qilganimda, donolik qilib ishontirishga urinmadim, balki Xudoning Ruhi va qudratiga asoslandim, 5 toki sizlarning imoningiz inson donoligiga emas, balki Xudoning qudratiga asoslansin.

Xudoning donoligi

6 Biz yetkazgan xabarni ruhan yetuk insonlar hikmatu donolik deb tan oladilar. Ammo bizning donoligimiz bu dunyoga yoki bu dunyoning o‘tib ketadigan hukmronlariga munosib bo‘lgan donolik emas. 7 Biz Xudoning pinhon tutilgan sirli donoligi haqida gapiramiz. Bu donoligi bilan Xudo dunyo bino bo‘lishidan avvalroq biz uchun najot rejasini tayyorlab qo‘ygan edi. Uning maqsadi bizni O‘z ulug‘vorligidan bahramand qilish edi. 8 Bu dunyoning hukmronlari Xudoning donoligini tushunmadilar. Tushunganlarida edi, ulug‘vor Rabbimiz Isoni xochga mixlamagan bo‘lardilar. 9 Biz Muqaddas bitiklarda yozilgan sirli reja haqida gapiryapmiz:

> “Hech bir ko‘z ko‘rmagan, hech bir quloq eshitmagan,
> Inson aqli bovar qilmagan ajoyibotlarni
> Xudo O‘zini sevganlar uchun tayyorlab qo‘ygan.”*

10 Bizlarga esa Xudo bularni O‘zining Ruhi orqali oshkor qildi. Chunki Muqaddas Ruh hamma narsadan, hatto Xudoning chuqur o‘y–fikrlaridan ham ogohdir. 11 Insonning o‘y–fikrlarini uning ichidagi o‘z ruhidan boshqa yana kim biladi?! Xuddi shu singari, Xudoning o‘y–fikrlarini Xudoning Ruhidan boshqa hech kim bilmaydi. 12 Biz Xudoning Ruhini qabul qildik, endi dunyoviy odamlar kabi o‘y–fikr qilmaymiz. Shuning uchun Xudo bizga nima ato qilganini aniq tushuna olamiz. 13 Biz bular haqida gapirganimizda insoniy donolik bilan gapirmaymiz, balki Muqaddas Ruh o‘rgatayotgan so‘zlar bilan ruhiy haqiqatni talqin qilamiz*.

14 Qalbida Xudoning Ruhi bo‘lmagan insonlar Xudoning Ruhi o‘rgatgan haqiqatni rad qiladilar. Ular uchun bu haqiqat tentaklikday tuyuladi, bu haqiqatni ular tushuna olmaydilar. Zero, bu haqiqatni faqatgina Xudoning Ruhi yordami bilan tushunsa bo‘ladi. 15 Qalbida Xudoning Ruhi bo‘lgan inson hamma narsaga baho bera oladi, ammo boshqalar u odamga baho berishga ojiz. 16 “Axir, kim Rabbimizning fikr–zikrini anglab yetibdiki, Unga yo‘l–yo‘riq ko‘rsatsa?!”* Biz esa Masihday fikrlay olamiz.

3–BOB

Hamon go‘dakday bo‘lgan imonlilar

1 Ey birodarlar, sizlarga ruhan yetuk insonlarga gapirganday emas, balki bu dunyoga
tegishli odamlarga gapirganday gapirdim. Yana sizlarga endigina Masihga ishongan,
imonda go‘dakday bo‘lgan insonlarga so‘zlaganday so‘zladim. 2 Sizlarga bergan
ta’limotim milkka botadigan yegulikday emas, balki chaqaloqlarga kerak bo‘lgan sutday
edi, chunki sizlar kuchliroq ta’limotga tayyor emas edingiz. Hozir ham tayyor emassiz,
3 chunki bu dunyo hali ham sizlarga o‘z ta’sirini ko‘rsatyapti. Orangizda hasadgo‘ylik va
janjalkashlik bor ekan, bu sizlarning hali ham bashariy tabiatingiz ta’sirida ekaningizni,
insoniy fikrlab yashayotganingizni ko‘rsatmaydimi?! 4 Axir, ba’zilaringiz: “Men
Pavlusning shogirdiman”, boshqalaringiz esa: “Men Apollosning* shogirdiman”,
desangiz, sizlar insoniy fikrlab yashayotgan bo‘lmaysizmi?

Xudoning xizmatidagi hamkorlar

5 Axir, Pavlus kim? Apollos kim? Ular Xudoning xizmatkorlaridir, ular orqali sizlar
imonga kelgansizlar. Har birimiz Egamiz bergan vazifani bajaramiz. 6 Men urug‘ ekdim,
Apollos sug‘ordi, lekin Xudo parvarishlab, o‘stirdi. 7 Kim ekkani yoki sug‘organi muhim
emas, eng muhimi o‘stiradigan Xudodir. 8 Ekuvchining ham, sug‘oruvchining ham
maqsadi bir va ularning har biri o‘z mehnatiga yarasha mukofot oladi. 9 Biz Xudoning
xizmatidagi hamkorlarmiz, sizlar esa Xudoning dalasisizlar. Ayni paytda sizlar Xudoning
imorati hamsizlar. 10 Xudoning marhamati bilan men mohir bir me’morday imoratning
poydevorini qo‘ydim. Endi esa boshqalar uning ustida qurilish qilyaptilar. Har kim
qanday qilib qurayotganiga diqqat qilsin. 11 Zero, hech kim mavjud bo‘lgan poydevordan
boshqa poydevor qo‘ya olmaydi. Bu poydevor Iso Masihdir. 12 Bu poydevor ustiga
kimdir oltindan, kimdir kumush yoki qimmatbaho toshlardan, yana kimdir esa yog‘ochu
xashak yoki poxoldan imorat qurmoqda. 13 Har kimning ishi qanday ekanligi qiyomat
kunida ayon bo‘ladi. O‘sha kuni hammaning ishi olovda sinaladi. 14 Kimning qilgan ishi
olovga bardosh bersa, o‘sha kishi mukofot oladi. 15 Kimning ishi yonib ketsa, u
mukofotdan mahrum bo‘ladi. Holbuki, u Iso Masihga tegishli bo‘lgani uchun najot
topadi, lekin u olovdan qutulib chiqqan odamga o‘xshaydi.

16 Nahotki bilmasangiz?! Sizlar Xudoning ma’badisizlar, Xudoning Ruhi orangizda
maskan qilgan. 17 Kimki Xudoning ma’badini buzsa, Xudo uni halok qiladi. Zero,
Xudoning ma’badi muqaddasdir, bu ma’bad esa sizlarsiz.

18 Hech kim o‘zini o‘zi aldamasin. Orangizda kimdir o‘zini bu dunyoda dono deb
bilsa, o‘zining aqlsiz ekanligini tan olsin, shundagina u haqiqatan ham dono bo‘ladi.
19 Chunki bu dunyoning donoligi Xudoning nazarida aqlsizlikdir. Muqaddas bitiklarda
quyidagicha yozilgan–ku:

> “U donolarni o‘zlarining ayyorliklari orqali tutib oladi.”*

20 Yana shunday yozilgan:

> “Egamiz donolarning niyatini anglaydi,
> Niyatlarining behudaligini U biladi.”*

21 Shuning uchun orangizda hech kim boshqa bir insonning ta’limotiga rioya
qilayotgani bilan maqtanmasin. Axir, hammasi sizlarga tegishli–ku: 22 Pavlus, Apollos va
Butrus*, dunyo ham, hayot va o‘lim ham, hozir va kelajak ham — bularning hammasi
sizniki. 23 Sizlar esa Masihniki, Masih esa Xudonikidir.

4–BOB

Havoriylarning martabasi va vazifasi

1 Odamlar bizni Masihning xizmatkorlari hamda Xudoning sir–asrorlarini bayon
etishga mas’ul insonlar deb bilishlari kerak. 2 Bizdan talab qilingan narsa ishonchli
bo‘lishdir. 3 Meni sizlar hukm qilasizlarmi yoki mahkamada hukm qilishadimi, menga
farqi yo‘q. Men o‘zimni o‘zim ham hukm qilmayman. 4 Zotan, o‘zimda hech bir ayb
ko‘rmasam ham, bu bilan o‘zimni oqlamayman. Chunki meni hukm qiluvchi Rabbimiz
Iso bo‘ladi. 5 Shu bois sizlar ham vaqtidan oldin, Rabbimiz kelmaguncha, aslo hukm
qilmanglar. U kelib zulmatda yashirilgan narsalarni ravshan qiladi, inson yuraklarining
maqsadlarini oshkor etadi. O‘shanda har kim o‘z ishiga yarasha Xudoning tahsiniga
sazovor bo‘ladi.

6 Ey birodarlar, men o‘zimni va Apollosni* misol qilib keltirdim, toki sizlar Muqaddas
bitiklarda yozilganlarga binoan yashashni bizdan o‘rganinglar. Bir ustozni boshqasidan
ustun qo‘ymang. 7 Kim sizlarga shunday huquq berib qo‘ygan?! Xudodan olmagan biror
narsangiz bormi?! Bor narsangizni sizga Xudo bergan–ku, nima uchun xuddi o‘z
kuchingiz bilan erishganday maqtanib yuribsiz? 8 Xohlagan hamma narsangizga erishib
oldingizmi?! Boy bo‘lib ketdingizmi?! Bizsiz hukmronlik qilyapsizmi?! Qani, endi
haqiqatan ham hukmronlik qilayotgan bo‘lsangiz edi, biz ham sizlar bilan birga
hukmronlik qilsak. 9 Lekin men o‘ylaymanki, Xudo biz — havoriylarni sharmandali
ahvolga solib, maydonda namoyish qilinadigan, o‘limga mahkum etilgan asirlarday qilib
qo‘ydi. Biz farishtalaru insonlar oldida, butun koinot oldida tomosha bo‘lib qoldik. 10 Biz
Masih haqi aqlsiz bo‘libmiz, sizlar esa Masih soyasida aqlli bo‘lib qolibsizlar. Biz zaif,
sizlar esa kuchli ekansiz! Sizlar obro‘–e’tiborli, biz esa sharmanda ekanmiz–da!
11 Hozirgacha och–yalang‘ochmiz, tashnalik va kaltaklarga bardosh beryapmiz, sarson–
sargardon bo‘lib yuribmiz. 12 O‘z mehnatimiz bilan kun ko‘ryapmiz. Bizni haqorat
qilsalar, duo qilamiz, quvg‘in qilsalar, chidaymiz. 13 Bizni g‘iybat qilsalar, yaxshilik bilan
javob beramiz. Hozirgacha biz dunyoning supurindisi, hammaning axlatiday bo‘lib
yuribmiz.

Pavlusning pand–nasihatlari

14 Men bularni sizlarni xijolatda qoldirmoq uchun emas, balki sevimli bolalarimga
nasihat qilganday, sizlarga nasihat qilib yozyapman. 15 Masihning yo‘lida minglab
odamlar sizlarga ustozlik qilsa ham, sizlarning faqatgina bir ruhiy otangiz bor. Men
sizlarga Xushxabarni yetkazib, Iso Masih orqali sizlarning ruhiy otangiz bo‘ldim.
16 Shuning uchun sizlarga yolvoraman, mendan o‘rnak olinglar*. 17 Ana shu maqsadda
men Rabbimiz Isoga sodiq bo‘lgan sevimli o‘g‘lim Timo‘tiyni* sizlarning oldingizga
yuboryapman. Har yerda va har bir imonlilar jamoatida ta’lim berar ekanman, Iso
Masihga tegishli bo‘lib, qanday hayot kechirayotganimni u sizlarga aytib beradi.

18 Orangizda ba’zilar: “Pavlus kelmas ekan”, deb kekkayib, bilganini qilayotgan ekan.
19 Ammo Rabbimiz Iso xohlasa, men yaqin orada oldingizga boraman. Shunda nafaqat bu

takabbur odamlar qanday gaplar gapirayotganlarini, balki ularda qanday kuch borligini sinab koʻraman. 20 Chunki Xudoning Shohligi quruq soʻzlar bilan emas, balki kuch–qudrat bilan namoyish etiladi. 21 Xoʻp, nima xohlaysizlar? Oldingizga kaltak bilan boraymi yoki mehr–muhabbat va muloyimlik ruhi bilan boraymi?

5–BOB

Jamoatdagi axloqsizlikni yoʻq qilish haqida

1 Orangizda jinsiy axloqsizlik bor ekanligi haqida gaplar yuribdi. Bunday axloqsizlik
hatto butparastlar orasida ham sodir boʻlmagan ekan. Orangizdagi bir kishi oʻz otasining
xotinini xotin qilib yashayotgan ekan. 2 Sizlar esa kekkayib yuribsizlar. Aksincha, motam
tutib, bunday ish qilgan odamni orangizdan haydab chiqarishingiz kerak–ku! 3-4 Toʻgʻri,
hozir jismonan sizlar bilan emasman, ammo ruhan sizlar bilan birgaman. Men goʻyo
sizlarning yoningizda boʻlgandek, bu ishni qilgan odam haqida allaqachon Rabbimiz Iso
Masih nomi bilan hukm chiqardim. Sizlar birga yigʻilganingizda, Iso Masihning qudrati
va mening ruhim sizlar bilan birga boʻladi. 5 Shunda oʻsha odamni shaytonga
topshiringlar, toki uning tanasi halokatga uchrasin*, ruhi esa Rabbimiz Iso kelgan kunda
xalos boʻlsin.
6 Maqtanishingiz oʻrinli emas. Nahotki ozgina xamirturush butun xamirni achitishini
bilmasangizlar? 7 Orangizdan eski xamirturushni* chiqarib tashlanglar, shu tariqa yangi
xamirday boʻlinglar. Sizlar aslida xamirturushsiz xamirdaysizlar–ku! Chunki Masih Oʻz
jonini fido qilib, bizning Fisih qurbonligimiz boʻldi! 8 Shuning uchun Fisih bayramini*
nishonlaganday, yangi hayotimizni nishonlab yashaylik! Yomonlik va buzuqlik timsoli
boʻlgan xamirturushga hayotimizdan oʻrin bermay, soflik va haqiqat bilan kun
kechiraylik.
9 Men oldingi maktubimda* sizlarga jinsiy tomondan axloqsiz boʻlgan odamlar bilan
munosabatda boʻlmaslik haqida yozgan edim. 10 Shubhasizki, bu dunyoning
zinokorlarini, tamagirlarini, tovlamachilarini, butparastlarini nazarda tutmagan edim,
aks holda, sizlar bu dunyo bilan butunlay aloqani uzishingizga toʻgʻri kelar edi. 11 Men
sizlarga, oʻzini birodar deb atab turib, zinokor, tamagir, butparast, gʻiybatchi, mayxoʻr
yoki tovlamachi odam bilan aloqa qilmanglar, u bilan birga hatto ovqat ham yemanglar,
deb aytgan edim. 12-13 Qolaversa, imonlilar jamoatidan tashqaridagilarni hukm etishga
bizning nima haqimiz bor? Ularni Xudo hukm qiladi. Sizlar jamoatdagilarni hukm
qilsangiz, bas. Fosiq odamni oʻz orangizdan haydab chiqaringlar.

6–BOB

Imonlilar orasidagi da’volarni hal qilish haqida

1 Orangizda bittasining boshqa birovga da’vosi bor ekan. Bu da’voni hal qilib bersin
deb, u kishi Xudoning azizlari oldiga emas, balki imonsizlar oldiga borishga qanday
jur’at qilyapti? 2 Xudoning azizlari hatto dunyoni hukm qilishini nahotki sizlar
bilmasangiz?! Modomiki, sizlar dunyoni hukm qilar ekansiz, nahotki ahamiyatsiz ikir–
chikir ishlarni hukm qila olmasangiz? 3 Biz hatto farishtalarni ham hukm qilamiz–ku!
Shuni bilmaysizlarmi?! Shunday ekan, turmush ikir–chikirlari nima boʻlibdi?! 4 Nima
uchun endi bir–biringizga da’voingiz boʻlsa, jamoatga daxli boʻlmagan hakamlarning

oldiga boryapsiz?! 5 Nahotki orangizda o‘z birodarlarining da’vosini ajrim qila oladigan birorta dono odam topilmasa?! Uyalmaysizlarmi, axir?! 6 Imonli birodar yana boshqa bir imonli birodari bilan da’volashmoqda, qolaversa buni imonsiz hakamlarning oldida qilyapti–ya!

7 Undan ko‘ra, haqsizlikka chidab turganingiz sizlar uchun yaxshiroq bo‘lmasmidi? Hatto hiyla–nayranglardan zarar ko‘rish sizlar uchun afzalroq bo‘lmasmidi? Bir–biringiz bilan da’volashishning o‘zi sizlar uchun tamoman mag‘lubiyat–ku! 8 Shunisi yetmaganday, sizlar hiyla–nayranglar bilan o‘z birodaringizga nohaqlik qilyapsizlar.

9 Nahotki bilmasangizlar?! Nohaqlik qiluvchilar Xudoning Shohligidan bahramand bo‘lmaydilar–ku! Adashmanglar, jinsiy tomondan axloqsiz bo‘lganlar, butparastlar, zinokorlar, bachchabozlaru bachchalar, 10 o‘g‘rilar, tamagirlar, mayxo‘rlar, g‘iybatchilar va tovlamachilar Xudoning Shohligidan bahramand bo‘lmaydilar. 11 Ba’zilaringiz oldin shunday edingiz. Endi esa sizlar Rabbimiz Iso Masihning nomi bilan va Xudoning Ruhi orqali poklandingiz, Xudoga bag‘ishlandingiz, oqlandingiz.

A’zoyi badaningiz bilan Xudoni ulug‘lang

12 Ba’zilaringiz: “Xohlaganimni qilishga haqim bor”, deb aytyapsizlar. To‘g‘ri, lekin hamma narsa ham foydali emas. Xohlaganimizni qilishga haqimiz bor, lekin hech bir narsa bizning ustimizdan hokimlik qilmasligi kerak. 13 Ba’zilaringiz yana: “Ovqat qorin uchun, qorin esa ovqat uchun, Xudo ikkalasini ham yo‘q qiladi–ku”*, deb aytyapsizlar. To‘g‘ri, ammo badanimiz zino uchun xizmat qilmasligi kerak, aksincha, badanimiz bilan Rabbimiz Isoga xizmat qilishimiz kerak. Rabbimiz badanimiz ustidan hokimlik qilishi kerak. 14 Rabbimizni tiriltirgan Xudo O‘z qudrati bilan bizlarni ham tiriltiradi.

15 Bilmaysizlarmi, axir?! A’zoyi badaningiz Masih tanasining a’zosi–ku! Shunday ekan, men Masih tanasining a’zolarini olib, fohisha tanasining a’zolari qilib qo‘yarmikanman? Yo‘q, aslo! 16 Fohisha bilan qovushgan u bilan bir tan bo‘lishini bilmaysizlarmi?! Muqaddas bitiklarda: “Ikkalasi bir tan bo‘ladilar”*, deb yozilgan–ku! 17 Rabbimiz Iso bilan birga bo‘lgan esa U bilan bir ruhda bo‘ladi.

18 Jinsiy axloqsizlikdan o‘zingizni olib qochinglar! Jinsiy axloqsizlik bilan gunoh qilgan o‘z tanasiga qarshi gunoh qilgan bo‘ladi, qolgan hamma gunohlar esa tanaga bevosita bog‘lanmagan holda qilinadi. 19 Nahot bilmasangiz?! Qalbingizda maskan qilgan Muqaddas Ruhni Xudo sizlarga bergan. Tanangiz Muqaddas Ruhning ma’badidir. Sizlar o‘zlaringizga tegishli emassizlar. 20 Sizlar qimmat bahoga sotib olingansizlar. Shuning uchun o‘z tanangiz bilan Xudoni ulug‘langlar*.

7–BOB

Nikoh masalasi

1 Endi sizlar menga yozganlaringizga kelaylik. Orangizda ba’zilar: “Er xotini bilan qovushmasin”, deb aytayotgan ekan. 2 Lekin jinsiy axloqsizlikka yo‘l qo‘ymaslik uchun har bir kishi o‘z xotini bilan, har bir ayol esa o‘z eri bilan qovushishi kerak. 3 Er o‘z xotiniga nisbatan va xotin o‘z eriga nisbatan er–xotinlik vazifasini bajarsin. 4 Xotinning badani ustidan xotin emas, balki eri hokimlik qiladi. Xuddi shu singari, erning badani ustidan er emas, balki xotini hokimlik qiladi. 5 Bir–biringizdan bosh tortmanglar. Faqatgina o‘zaro kelishgan holda, o‘zingizni ibodatga bag‘ishlash* uchungina jinsiy aloqadan o‘zingizni tutib turing. Bundan so‘ng yana qovushinglar, toki o‘zingizni tiya

olmasligingizdan foydalanib, shayton sizlarni vasvasaga solmasin. 6 Men buni buyruq
tariqasida emas, nasihat tariqasida aytyapman. 7 Qaniydi, hamma menga o‘xshab
so‘qqabosh bo‘lsa! Ammo har bir odamda Xudodan berilgan in’om bor, biriniki bu
bo‘lsa, boshqasiniki udir.
8 Beva ayollar va xotini o‘lgan erkaklarga shunday deyman: men kabi bo‘lsalar,
o‘zlari uchun yaxshidir. 9 Ammo ular o‘zlarini tiya olmasalar, uylansinlar, erga tegsinlar.
Chunki shahvoniy ishq bilan yonishdan ko‘ra, uylanish, erga tegish yaxshiroqdir.
10 Quyidagi amr esa uylangan va erga tekkanlarga berilgan. U mendan emas,
Rabbimiz Isodandir: xotin eri bilan ajrashmasin*. 11 Ajrashgan bo‘lsa, boshqa erga
tegmasin yoki o‘z eri bilan yarashsin. Er ham o‘z xotini bilan ajrashmasin.
12 Eri yoki xotini imonli bo‘lmaganlarga esa shunday deb aytaman. Bular
Rabbimizning emas, mening so‘zlarimdir: birorta imonli erkakning xotini imonsiz
bo‘lsa–yu, ammo eri bilan yashashga rozi bo‘lsa, er xotini bilan ajrashmasin.
13 Shuningdek, imonli ayolning eri imonsiz bo‘lsa va u xotini bilan yashashga rozi bo‘lsa,
o‘sha ayol eridan ajrashmasin. 14 Axir, imonsiz er imonli xotini tufayli poklanadi*.
Shuningdek, imonsiz ayol imonli eri tufayli poklanadi. Natijada ularning farzandlari
harom emas, pok bo‘ladi. 15-16 Xudo bizni tinchlikka chorlagan. Qayerdan bilasan ey
xotin, balki sen orqali ering najot topar?! Ey er, qayerdan bilasan, balki sen orqali
xotining najot topar?! Ammo imonsiz inson o‘zining imonli turmush o‘rtog‘idan
ajrashmoqchi bo‘lsa, ajrashaversin. Shundan keyin o‘sha ajrashgan imonli odamning
boshi bog‘liq emas.

Xudoning da’vatiga qarab yashanglar

17 Har bir insonni Xudo qanday da’vat qilgan bo‘lsa, Rabbimiz Iso uni qanday
sharoitga solgan bo‘lsa, u shunday yashashda davom etaversin. Barcha jamoatlarda
mana shunday ta’lim berib kelyapman. 18 Birov sunnatli* bo‘lganda da’vat etildimi,
jarrohlik yordamida qayta sunnat qilinmaganday sunnatini o‘zgartirmasin. Boshqa
birov sunnatsiz* bo‘lganda da’vat etildimi, sunnat qilinmasin. 19 Axir, sunnat qilingan
yoki qilinmaganlikning hech ahamiyati yo‘q. Eng muhimi, Xudoning amrlariga amal
qilishdir. 20 Har kim qanday holatda da’vat etilgan bo‘lsa, o‘sha holatini o‘zgartirishga
urinmasin. 21 Agar qul bo‘lganingda da’vat etilgan bo‘lsang, tashvishlanma. Ammo ozod
bo‘lishga imkon bor bo‘lsa, fursatni g‘animat bil.
22 Sizlar Rabbimiz Isoga tegishli bo‘lishga da’vat etilgansiz. Kim qul bo‘lgan paytida
da’vat etilgan bo‘lsa, endi Rabbimizning nazarida u ozod insondir. Shuningdek, kim ozod
bo‘lgan paytida da’vat etilgan bo‘lsa, endi u Masihning qulidir. 23 Sizlar qimmat bahoga
sotib olindingiz, shuning uchun o‘zingizni insoniy g‘oyalarga qul qilmanglar.
24 Birodarlar, Xudo kimni qanday vaziyatda da’vat qilgan bo‘lsa, o‘sha vaziyatda qolib
yashayversin.
25 Hali oila qurmagan erkagu ayollar masalasiga kelsak, Rabbimiz Iso bu haqda amr
bermagan. Ammo men Egamizning mehr–shafqati bilan ishonchli bo‘lgan kishi sifatida
maslahat bera olaman. 26 Hozirgi tang vaziyat sababli kishi qay holda bo‘lsa, shunday
qolgani yaxshidir. 27 Uylanganmisan? Xotining bilan ajrashma. Bo‘ydoqmisan? Xotin
olmagin. 28 Bordi–yu, uylansang, bu gunoh emas. Shuningdek, qiz erga tegsa ham, gunoh
bo‘lmaydi. Ammo uylanganlarning tashvish va iztiroblari ko‘p bo‘ladi, men sizlarni
shulardan asramoqchiman.

29 Ey birodarlar, sizlarga yana shuni aytmoqchimanki, vaqt endi qisqa. Vaqti kelib,
uylanganlaru uylanmaganlarning farqi bo‘lmaydi. 30 Yig‘layotganlaru sevinayotganlar,
buyum xarid qilganlar o‘zlarining qayg‘u–alamlari, xursandchiligi va mol–dunyosi bilan
ovora bo‘lib qolmasin. 31 Bu dunyoning ishlari bilan ovora bo‘lganlar endi buni bas
qilsinlar. Axir, bu dunyo o‘tkinchi–ku!
32 Men sizlarning tashvishsiz bo‘lishingizni istayman. Bo‘ydoqning asosiy tashvishi
Rabbimiz Isoni mamnun qilish, Uning ishlari bilan mashg‘ul bo‘lishdir. 33 Uylangan kishi
esa xotinini mamnun qilish niyatida dunyoviy ishlar haqida qayg‘uradi. 34 Uning fikri
ikkiga bo‘lingan. Hozir ersiz bo‘lgan ayollar va erga tegmagan qizlarning ham tashvishi*
Rabbimizning ishlari bilan mashg‘ul bo‘lishdir, ularning maqsadi ham jismonan, ham
ruhan Rabbimizga bag‘ishlanishdir. Erga tekkan ayol esa erini mamnun qilish niyatida
dunyoviy ishlar haqida qayg‘uradi.
35 Men sizlarni chegaralash niyatida emas, balki sizlarning manfaatingizni ko‘zlab
bularni aytyapman. Toki sizlar fikringizni chalg‘itmasdan, sidqidildan Rabbimiz Isoga
berilib, odobli hayot kechiringlar. 36 Agar unashtirilgan kishi o‘z qaylig‘iga uylanmay,
unga nisbatan noto‘g‘ri muomala qilyapman, deb o‘ylasa hamda unga uylanishni qattiq
xohlasa, o‘zining bergan so‘zida turib, uylansin. Bu gunoh emas*. 37 Ammo u uylanishni
ehtiyoj deb bilmay, o‘z qaylig‘iga uylanmaslikka qattiq qaror qilib, bu borada irodasini
ko‘rsata olsa, bu ham yaxshi. 38 Shunday qilib, o‘z qaylig‘iga uylangan kishi yaxshi ish
qilgan bo‘ladi, uylanmagan esa undan ham yaxshiroq ish qilgan bo‘ladi.
39 Xotin kishining eri tirik ekan, uning boshi bog‘liqdir. Agar eri o‘lsa, u istagan
kishiga turmushga chiqishi mumkin, faqat u erkak Rabbimiz Isoga tegishli bo‘lishi kerak.
40 Ammo menimcha, o‘sha ayol tulligicha qolsa, u yana ham baxtli bo‘ladi. Ishonamanki,
menda ham Xudoning Ruhi bor.

8–BOB

Butga keltirilgan qurbonlik go‘shti masalasi

1 Butga keltirilgan qurbonlik go‘shti* masalasiga kelsak. O‘zingiz aytganingizdek,
hammamiz bu haqdagi haqiqatni bilamiz. Ammo bilim odamni shishintiradi, mehr–
muhabbatli inson esa o‘zgalarning manfaatini ko‘zda tutadi. 2 Agar bir kishi bilimliman
deb o‘ylasa, u hali zarur bo‘lgan bilimga erishmagan. 3 Kim Xudoni yaxshi ko‘rsa, Xudo
uni tanib–biladi.
4 Endi butga keltirilgan qurbonlik go‘shtini yeyish masalasiga kelsak, biz shuni
bilamizki, dunyoda but hech narsa emas, birgina Xudodan boshqa Xudo yo‘q. 5 Garchi
yeru ko‘kda xudo deb atalgan narsalar ko‘p bo‘lsa–da (haqiqatan, bunaqa “xudolar” va
“rabbiylar” juda ko‘p), 6 biz uchun birgina Otamiz Xudo bor. U butun mavjudotning
Yaratuvchisidir va biz U uchun yashaymiz. Shuningdek, birgina Rabbimiz Iso Masih bor.
Butun mavjudot Masih orqali vujudga kelgan va biz U orqali yashaymiz. 7 Ammo hamma
ham bularni bilmaydi. Orangizda ba’zilar “butlar bor” degan fikrga shunchalik o‘rganib
qolganki, butlarga keltirilgan qurbonlik go‘shtini yeganda ularning vijdoni qiynaladi,
chunki ular bunday go‘sht yeyishni hali ham butlarga sajda qilish deb biladi. 8 Oziq–
ovqat bizni Xudoga yaqinlashtira olmaydi. Axir, yemasak ham biror narsa
yo‘qotmaymiz, yesak ham biror foyda ko‘rmaymiz.
9 Faqat ehtiyot bo‘ling, sizlarning bu erkinligingiz zaiflarning vasvasaga tushishiga

sabab bo‘lmasin. 10 Masalan, sen bilimli odam, butxonada taom yeb o‘tiribsan, deylik. Bu masalada ikkilanib turgan birodaring seni ko‘rib qoladi. Bundan keyin u butga keltirilgan qurbonlik go‘shtidan yeyishga moyil bo‘lmaydimi?! 11 O‘sha zaif birodaring uchun Masih o‘lgan, sen esa uni o‘z biliming tufayli halokatga yo‘liqtirasan. 12 Shunday qilib, ikkilanib turgan birodaringni vasvasaga solib, unga qarshi gunoh qilsang, Masihga qarshi gunoh qilgan bo‘lasan. 13 Agar biror ovqatni yeyishim birodarimning gunoh qilishiga sabab bo‘lsa, uni vasvasaga solmaslik uchun endi men umrbod o‘sha ovqatni yemayman.

9–BOB

Havoriyning haq–huquqlari

1 Men ozod emasmanmi?! Men havoriy emasmanmi?! Rabbimiz Isoni ko‘rmaganmanmi?! Rabbimiz yo‘lida qilgan mehnatimning mahsuli sizlar emasmi?! 2 Agar boshqalar uchun havoriy bo‘lmasam ham, hech bo‘lmasa sizlar uchun havoriydirman. Axir, sizlar Rabbimizga tegishli bo‘lganingiz uchun havoriyligimning muhrisizlar.

3 Meni tanqid qilayotganlar oldida quyidagilar bilan o‘zimni oqlayman. 4 Nahotki Rabbimiz yo‘lida qilgan xizmatimiz uchun tekin yeb–ichishga huquqimiz bo‘lmasa?! 5 Nima, boshqa havoriylar kabi, Rabbimiz Isoning ukalari* va Butrusga* o‘xshab, imonli bir ayolga uylanib, uni yonimizda olib yurishga haqimiz yo‘qmi?! 6 Yoki faqatgina men bilan Barnabo kun kechirish uchun o‘z qo‘limiz bilan mehnat qilishimiz kerakmi?!

7 Kim o‘z hisobidan askarlik qiladi?! Kim tok o‘tqazib, uning mevasini yemaydi?! Kim poda boqib, podaning sutini ichmaydi?! 8 Bularni faqatgina insoniy nuqtayi nazardan aytayotganim yo‘q! Musoning qonuni ham xuddi shunday buyuradi–ku! 9 Unda: “G‘alla yanchayotgan ho‘kizning og‘zini to‘smang”*, deb yozilgan–ku. Nima, Xudo ho‘kizlar haqida qayg‘uryaptimi?! 10 Yo‘q, Xudo buni bizning manfaatimiz uchun aytgan. Ha, bular biz uchun yozilgan. Shudgor qiluvchi ham, g‘alla yanchuvchi ham o‘z haqini olish umidi bilan ishlaydi–ku. 11 Biz ruhiy jihatdan sizlarga xizmat ko‘rsatsak–da, moddiy yordamingizni bizga ko‘p ko‘rasizmi? 12 Boshqalar sizlarning yordamingizdan bahramand bo‘layotgan ekan, bizning haqimiz ularnikidan ham ko‘proq emasmi?! Lekin biz bu huquqimizdan foydalanmadik. Aksincha, Masihning Xushxabariga to‘siq bo‘lmaylik deb, har narsaga chidab yuribmiz.

13 Bilmaysizlarmi, Ma’badda xizmat qiluvchi ruhoniylar* Ma’baddan ovqat olib yeydilar. Qurbongohda xizmat qiluvchilar keltiriladigan qurbonliklardan ulush oladilar. 14 Shuningdek, Rabbimiz Isoning O‘zi buyurgani bo‘yicha*, Xushxabar yoyish vazifasini bo‘yniga olganlar bu ishi orqali kun kechira olishlari kerak. 15 Ammo men bu huquqlarimdan foydalanmadim va bundan faxrlanaman. Bu xatni o‘sha huquqimdan foydalanay, deb ham yozayotganim yo‘q. Menga faxrlanish huquqini berayotgan sababni yo‘qotishdan ko‘ra, o‘lganim yaxshiroqdir. 16 Men Xushxabarni aytar ekanman, bu bilan maqtanishga haqim yo‘q, chunki bu zimmamdagi vazifamdir. Ammo Xushxabarni yoymasam, mening holimga voy! 17 Men buni o‘z tashabbusim bilan qilayotgan bo‘lsam, mukofotga loyiq bo‘lardim. Lekin mukofotga loyiq emasman, chunki bor–yo‘g‘i zimmamdagi vazifani bajaryapman, bu ishni qilishdan boshqa ilojim yo‘q. 18 U holda mening mukofotim nima? Mukofotim shundaki, men Xushxabarni yoyganimda, hech

kimdan biron narsa so‘ramayman. Shuning uchun Xushxabarni yoyish menga ba’zi bir huquqlarni bersa–da, ulardan foydalanmayman.

Pavlusning maqsadi

19 Men qul emas, erkin inson bo‘lsam–da, hammaga qulday xizmat qildim. Yanada
ko‘proq odam Isoning shogirdi bo‘lsin deb, shunday qildim. 20 O‘sha maqsadimni ko‘zda
tutib, yahudiylar uchun yahudiyday bo‘ldim, Musoning qonuniga tobe bo‘lmasam–da, bu
qonunga tobe bo‘lganlar orasida xuddi ularday yashadim. 21 Musoning qonunini
bilmaganlar orasida bo‘lganimda, ular ham Isoning shogirdlari bo‘lsin deb, xuddi
shularday yashadim. To‘g‘ri, men Xudoning qonunidan ozod emasman, Masihning
amrlariga tobeman. 22 Zaif insonlar ham Isoni tanisinlar deb, ularning orasida
bo‘lganimda zaif insonday bo‘ldim. Hech bo‘lmasa ba’zilarni qay yo‘l bilan bo‘lsa–da,
qutqaray deb, hammaga hamma narsa bo‘ldim. 23 Men bularning hammasini
Xushxabarni yoyish niyatida qilyapman, toki Xushxabar keltiradigan qut–barakalardan
bahramand bo‘lay.

24 Bilasizlar–ku, musobaqada ko‘pgina yuguruvchilar qatnashadi, ammo faqat bir
kishi g‘olib kelib, mukofot oladi. Sizlar ham shunday yuguringki, mukofotni qo‘lga
kiritinglar. 25 Axir, musobaqada qatnashadigan odam o‘z nafsini tiyib, tartib–intizom
bilan mashq qiladi–ku! Ular so‘lib qoladigan gul toj olish uchun, biz esa boqiy toj olish
uchun harakat qilamiz. 26 Shuning uchun men maqsadsiz yugurmayman, kurashganimda
zarbalarim aniq bo‘ladi. 27 Tanamni chiniqtirib, uni o‘z ixtiyorimga bo‘ysundiraman, toki
boshqalarga Xushxabarni va’z qilib turib, o‘zim mukofotga noloyiq bo‘lib qolmayin.

10–BOB

Isroil xalqining tarixidan ibratlar

1 Birodarlar, ota–bobolarimizning tarixini yodingizga solmoqchiman. Ularning
hammasi bulut ostida cho‘lni kezib, Qizil dengizdan o‘tdilar*. 2 Ular bulut ostida kezib,
Qizil dengizdan o‘tganda, go‘yo suvga cho‘mdirilganday bo‘lib, Musoning izdoshlari
bo‘ldilar. 3 Mo‘jiza orqali ularning hammasiga bir xil ovqat berildi*. 4 Mo‘jiza orqali
hammasiga ichish uchun suv berildi. Mo‘jiza orqali ular qoyadan suv olib ichdilar*. O‘sha
qoya Masihning timsoli edi. Yurgan yo‘llarida Masih ular bilan birga edi. 5 Garchi
shunday bo‘lsa ham, ularning deyarli hammasi Xudoni norozi qildi, shuning uchun
itoatsizlarni Xudo sahroda halok qildi.

6 Itoatsizlarning boshiga tushgan ko‘rgiliklar bizga ibrat bo‘ldi, toki biz ham ularga
o‘xshab yovuzlik payida bo‘lmaylik. 7 Ularning ba’zilariga o‘xshab, butparast bo‘lmaylik.
Ular haqida shunday yozilgan–ku: “Xalq o‘tirib yeb–ichgandan keyin ko‘ngilxushlik
qildi.”* 8 Ularning ba’zilariga o‘xshab jinsiy axloqsizlikka berilmaylik. Ular axloqsizlik
qilganlari uchun bir kunda yigirma uch mingtasi nobud bo‘ldi*. 9 Masihni sinamaylik,
chunki ulardan ba’zilari shunday qilib, ilonlarning zahridan halok bo‘ldilar*. 10 Hech
nolimaylik. Ulardan ba’zilari ming‘irlab nolidilar, shuning uchun Azroil ularni urib,
nobud qildi*.

11 Ular boshidan kechirgan bu hodisalar bizlarga ibrat bo‘ldi. Zamon oxirlashib
qolgan paytda yashayotganlarga, ya’ni bizlarga saboq bo‘lishi uchun bu hodisalar
Muqaddas bitiklarda yozib qoldirilgan. 12 Shuning uchun mahkam turibman, deb
o‘ylagan odam ehtiyot bo‘lsin, tag‘in qoqilib yiqilmasin. 13 Sizlar tushgan vasvasaga

boshqalar ham duchor bo‘lgan. Ammo Xudo sodiqdir, U kuchingizdan ortiq vasvasaga tushishingizga yo‘l qo‘ymaydi. Vasvasaga bardosh bera olishingiz uchun kerakli paytda vasvasadan qutulish yo‘lini ham beradi.

Jinlar bilan aloqada bo‘lmaslik haqida

14 Ey azizlarim, butparastlikdan o‘zingizni olib qoching! 15 Men sizlarni aqli raso
odamlar deb bilib gapiryapman. Aytayotganlarimga o‘zingiz baho beringlar. 16 Biz
dasturxon atrofida jam bo‘lib o‘tirganimizda*, Xudoga shukur aytib qutlug‘ kosadan
ichganimizda Masihning to‘kilgan qoniga sherik bo‘lamiz, nonni bo‘lishib yeganimizda
esa Uning qurbon qilingan tanasiga sherik bo‘lamiz–ku! 17 Bitta nonni bo‘lib
yeganimizday, biz hammamiz, ko‘pchilik bo‘lsak–da, bir tanani hosil qilamiz.
18 Isroil xalqiga qaranglar! Qurbongohdagi qurbonliklardan tanovul qilish ular uchun
Xudoga sajda qilish degani–ku! 19 Men bu bilan nima demoqchiman o‘zi? Butga
bag‘ishlangan qurbonlikning ham biror ahamiyati bormi? Butning o‘zi ham biror
ahamiyatga egami? 20 Yo‘q! Butparastlar qurbonlik keltirganlarida, aslida qurbonlikni
xudo deb atalgan butlarga emas, balki jinlarga bag‘ishlagan bo‘ladilar. Jinlarga sherik
bo‘lishingizni men xohlamayman. 21 Sizlar ham Rabbimiz Isoning kosasidan, ham
jinlarning kosasidan icha olmaysizlar. Ham Rabbimiz dasturxonidan, ham jinlarning
dasturxonidan bahramand bo‘la olmaysizlar. 22 Nahotki Rabbimiz Isoning rashkini
qo‘zg‘atmoqchi bo‘lsangiz? Nahotki sizlar Undan ham qudratliroq bo‘lsangiz?!

Boshqalarning manfaatini ko‘zlash

23 Ba’zilaringiz: “Inson xohlaganini qilishga haqli”, deb aytyapsiz. To‘g‘ri, lekin
hamma narsa ham foydali emas. Inson xohlaganini qilishga haqi bor, lekin hamma narsa
ham manfaat keltirmaydi. 24 Hamma birinchi o‘rinda o‘zining emas, boshqalarning
manfaatini ko‘zda tutsin. 25 Bozordagi go‘sht qayerdan kelgani haqida so‘rab–
surishtirmay, pok vijdon bilan yeyaveringlar. 26 Axir, Muqaddas bitiklarda shunday
yozilgan–ku:

> “Egamiznikidir zamin, undagi butun borliq.”*

27 Agar Masihni bilmagan birorta odam sizlarni uyiga chaqirsa va siz u yerga
boradigan bo‘lsangiz, oldingizga qo‘yilgan hamma narsani qayerdan kelganini so‘rab–
surishtirmay, pok vijdon bilan yeyaveringlar. 28-29 Lekin bir birodar sizga: “Bu qurbonlik
go‘shti”, deb aytsa, unda o‘sha aytgan odam haqi va uni vasvasaga solmaslik uchun o‘sha
go‘shtni yemanglar*. Go‘sht yeyish siz uchun gunoh bo‘lmasa ham, o‘sha odam uchun
gunoh, u go‘shtni yesa, vijdoni qiynaladi. Ammo men bu go‘shtni yemasam ham
erkinligim cheklanib qolmaydi. 30 Agar men Xudoga shukrona aytib ovqatni tanovul
qilsam, o‘sha ovqatni yeganim uchun malomatga qolmayman.
31 Shunday qilib, yeysizlarmi, ichasizlarmi, nimaiki qilsangiz ham, hammasini Xudoni
ulug‘lash uchun qilinglar. 32 Yahudiylaru g‘ayriyahudiylarni, Xudoni biladiganu
bilmaydiganlarni o‘ylab ish tuting. 33 Men ham o‘z manfaatimni emas, boshqalarning
manfaatini ko‘zlayapman, ular najot topsin deb, turli yo‘llar bilan hammaning ko‘nglini
topishga harakat qilyapman.

11–BOB

1 Men Masihdan o‘rnak olganim kabi, sizlar ham mendan o‘rnak olinglar.

Bosh yopinchiqlari haqida

2 Doim meni eslab turganlaringiz va men sizlarga o‘rgatgan urf–odatlarga amal
qilayotganlaringiz uchun sizlarni maqtasam arziydi. 3 Lekin bilinglarki, ayol erkakdan
yaratilgan, har bir erkakning hayot manbai Masihdir, Masihning hayot manbai esa
Xudodir. 4 Boshini yopib ibodat qilgan yoki shu holda boshqalarga Xudoning so‘zini
yetkazgan har bir erkak Masihni sharmanda qilgan bo‘ladi–ku! 5 Ayol kishi boshiga hech
narsa o‘ramay ibodat qilsa yoki Xudoning so‘zini gapirsa, erkaklarga isnod keltiradi,
axir, boshini yopmaslik sochini qirib tashlash bilan barobar–ku! 6 Agar ayol kishi
boshiga biror narsa o‘rashni xohlamasa, mayli, sochini kesib tashlayversin. Agar kalta
soch va qirilgan bosh ayol kishining sharmanda ekanligini ko‘rsatsa, ayollar boshlariga
ro‘mol o‘rasinlar.

7 Erkak kishi boshini yopmasligi kerak, chunki u Xudoning suratida yaratilgan va
Uning ulug‘vorligini aks ettiradi. Ayol kishi esa erkak kishining ulug‘vorligini aks
ettiradi. 8 Axir, erkak ayoldan emas, balki ayol erkakdan yaratilgan. 9 Erkak ayol kishi
uchun emas, balki ayol erkak uchun yaratilgan. 10 Shuning uchun, kuzatib turgan
farishtalar tufayli*, ayol kishi boshini yopish haqida to‘g‘ri qaror chiqarishi kerak*.

11 Holbuki, Rabbimiz Isoga tegishli bo‘lganlar orasida ayol kishi erkakdan mustaqil
emas, erkak kishi esa ayoldan mustaqil emas. 12 Ayol kishi erkakdan yaratilgani to‘g‘ri,
lekin o‘sha paytdan beri har bir erkak ayol kishidan tug‘ilgan. Aslida esa butun
borliqning manbai Xudodir.

13 O‘zingiz o‘ylab ko‘ring–chi, ayol kishi boshini yopmay Xudoga ibodat qilishi
to‘g‘rimi? 14 Erkak kishining sochlari uzun bo‘lsa, bu erkak uchun sharmandalik
ekanligini tabiatning o‘zi o‘rgatadi–ku! 15 Xuddi shunga o‘xshab, ayol kishining sochi
uzun bo‘lsa, bu ayol kishi uchun sharaf emasmi?! Axir, uzun soch boshiga ro‘mol o‘rash
kerakligini ko‘rsatadi. 16 Agar birortasi bu masaladagi yo‘l–yo‘riqlarim haqida
bahslashmoqchi bo‘lsa, bilsinki, Xudoning jamoatlarida biz aytib o‘tganlardan boshqa
urf–odatlar yo‘q.

Rabbimiz Isoni xotirlash haqidagi yo‘l–yo‘riqlar

17 Quyidagi masalalarga kelganda esa sizlarni maqtay olmayman. Yig‘ilishlaringiz*
foydadan ko‘ra, ko‘proq zarar keltirayotgan ekan. 18 Avvalo, siz — imonlilar birga
yig‘ilganingizda har xil guruhlarga bo‘linar ekansiz, bunga qisman bo‘lsa ham
ishonaman. 19 To‘g‘ri, kelishmovchiliklarning oldini olib bo‘lmaydi. Axir, kelishmovchilik
bo‘lgandagina orangizda kim to‘g‘ri fikr qilayotgani bilinadi.

20 Sizlar birga yig‘ilganingizda hech ham Rabbimiz Isoni xotirlayotganga
o‘xshamaysiz. 21 Chunki hamma o‘zi olib kelgan ovqatini o‘zi tanovul qilayotgan ekan.
Shunday qilib, ba’zilar och qolayotgan ekan, ba’zilar esa mast bo‘lib qolayotgan ekan.
22 Nahotki yeyish va ichish uchun uylaringiz bo‘lmasa?! Yoki Xudoning jamoatini pisand
qilmay, yo‘qsillarni xijolatda qoldirmoqchimisizlar? Sizlarga yana nima aytayin? Sizlarni
maqtaymi? Yo‘q, sizlarni bu xususda maqtamayman.

23 Men sizlarga bergan yo‘l–yo‘riqlarni Rabbimiz Isodan o‘rganganman. Rabbimiz Iso
xoinlarcha tutib berilgan kechada qo‘liga non oldi–da, 24 shukrona duosini aytib, sindirdi

va shunday dedi*: “Bu non Mening tanamni bildiradi. Tanam sizlar uchun fido bo‘ladi. Birgalikda non sindirib yeganingizda Meni xotirlanglar.” 25 Ovqatlanib bo‘lganlaridan keyin, Iso yana shukrona aytib, sharob quyilgan kosani oldi–da, shunday dedi: “Bu kosa Xudoning yangi ahdini bildiradi. Bu ahd sizlar uchun to‘kiladigan qonim evaziga kuchga kiradi. Birgalikda kosadan sharob ichganingizda Meni xotirlanglar.” 26 Har safar birgalikda shu tarzda non yeb, sharob ichar ekansiz, Rabbimiz kelguniga qadar Uning o‘limini e’lon qilayotgan bo‘lasizlar.

27 Shunday qilib, kimda–kim Rabbimizning yo‘lida yurganlarga nomunosib ravishda bu nondan yesa yoki Rabbimizning kosasidan ichsa, Rabbimizning tanasi va qoniga qarshi gunoh qilgan bo‘ladi. 28 Shuning uchun har bir kishi o‘zini o‘zi tekshirib ko‘rsin, shundan so‘nggina nondan yesin va sharobdan ichsin. 29 Rabbimizning tanasini pisand qilmasdan* yeb–ichgan odam o‘zini o‘zi mahkum qilgan bo‘ladi. 30 Mana shu sababdan ko‘plaringiz zaif va xastasizlar, hatto ba’zilar o‘lib ketgan. 31 Agar o‘zimizni o‘zimiz yaxshilab tekshirganimizda edi, mahkum bo‘lmas edik. 32 Dunyo bilan birga mahkum bo‘lmasligimiz uchun Rabbimiz Iso bizni hukm qilib, adabimizni beryapti. 33 Shuning uchun, birodarlarim, Rabbimizni xotirlash niyatida birgalikda yeb–ichish uchun yig‘ilganingizda, bir–biringizni kutib turinglar. 34 Agar biror kishi och bo‘lsa, o‘z uyida ovqat yeb kelsin. Shunda yig‘ilishingizdagi xulq–atvoringiz sizlarni mahkum qilmaydi. Qolgan masalalar haqida oldingizga borganimdan keyin yo‘l–yo‘riq ko‘rsataman.

12–BOB

Muqaddas Ruh beradigan in’omlar haqida

1 Ey birodarlarim, endi Muqaddas Ruh beradigan in’omlar masalasiga kelsak, bu haqda to‘liq tushunchaga ega bo‘lishingizni xohlayman. 2 Esingizdami, sizlar Xudosiz bo‘lgan paytlaringizda yo‘ldan ozib, soqov butlarga sajda qilar edingiz. 3 Shuning uchun quyidagilarni bilishingizni xohlayman. Xudoning Ruhidan ilhom olayotgan hech kim Isoni la’natlamaydi, shuningdek, hech kim Muqaddas Ruhning ilhomisiz Isoni Rabbim deb ayta olmaydi.

4 Ruh beradigan in’omlar har xildir, ammo Ruh birdir. 5 Xizmat qilish yo‘llari har xildir, Rabbimiz Iso esa birdir. 6 To‘g‘ri, xizmatlar har xildir, lekin har bir insonga bu xizmatlarni bajarish qobiliyatini berayotgan Xudo birdir.

7 Umumiy manfaat uchun Muqaddas Ruh har kimda o‘ziga xos ravishda namoyon bo‘ladi. 8 Bir odamga Ruh orqali donolik bilan gapirish qobiliyati beriladi, boshqa birovga esa xuddi shu Ruh orqali ilm–ma’rifatga to‘la so‘zlarni gapirish qobiliyati beriladi. 9 O‘sha Ruh orqali kimgadir kuchli bir imon beriladi, boshqa birovga esa shifo berish in’omi beriladi. 10 Ba’zilarga mo‘jizalar ko‘rsatish qobiliyati, boshqalarga Xudoning so‘zini yetkazish in’omi berilgan. Yana boshqalarga esa ruhlarning farqiga borish in’omi berilgan. Kimgadir noma’lum tillarda gapirish in’omi berilgan bo‘lsa, boshqalarga bu tillarni ta’bir qilish in’omi berilgan. 11 Bularning hammasini Muqaddas Ruh bajo qiladi. Har bir insonga Ruhning O‘zi loyiq ko‘rgan in’omni ato qiladi.

Tana bir, tana a’zolari esa ko‘p

12 Tana bir bo‘lsa–da, uning a’zolari ko‘p. Xuddi shuningdek, tana a’zolari ko‘p bo‘lsa–da, ularning hammasi bir tanani tashkil qiladi. Masihning tanasi, ya’ni jamoat ham shundaydir. 13 Axir, biz hammamiz — yahudiylaru yunonlar*, qullaru ozod bo‘lganlar,

bir tana bo‘lishimiz uchun bir Muqaddas Ruhga cho‘mdirildik. Hammamiz o‘sha bir Ruhga to‘lib–toshganmiz. 14 Zotan, badan bir a’zodan emas, balki ko‘p a’zolardan iborat.
15 Oyoq: “Men qo‘l emasman, shuning uchun tanaga tegishli emasman” degani bilan tanaga tegishli bo‘lmay qolmaydi–ku! 16 Quloq ham: “Men ko‘z emasman, shuning uchun tanaga tegishli emasman” degani bilan tanaga tegishli bo‘lmay qolmaydi–ku! 17 Axir, butun tana ko‘z bo‘lsa, qanday qilib eshitadi? Agar butun tana quloq bo‘lsa, qanday qilib hidlay oladi? 18 Axir, Xudo tana a’zolarining har birini O‘zi xohlagan joyiga qo‘ygan.
19 Agar ularning hammasi birgina a’zo bo‘lganda, tana bo‘larmidi?!
20 Shunday qilib, tana a’zolari ko‘p, lekin tana birdir. 21 Ko‘z qo‘lga: “Sen menga kerak emassan”, deb ayta olmaydi, bosh ham oyoqlarga: “Sizlar menga kerak emassizlar”, deya olmaydi–ku! 22 Aksincha, ojiz tuyulgan tana a’zolari eng kerakli a’zolardir. 23 Biz tanamizning uyatli hisoblangan a’zolariga e’tibor berib, ularni yopib yuramiz. Ko‘rimsiz tuyulgan tana a’zolarimizga diqqat–e’tibor qilamiz. 24 Uyatli bo‘lmagan tana a’zolarimizga bunday e’tibor berishimizning hojati yo‘q. Xudo tanamizni shunday yaratganki, hurmat–e’tiborsiz a’zolarga ko‘proq izzat–e’tibor beriladi. 25 Shunday qilib, tana a’zolari orasida kelishmovchilik bo‘lmaydi, balki barcha a’zolar bir–biriga g‘amxo‘rlik qiladi. 26 Agar bir a’zo azob cheksa, qolgan barcha tana a’zolari u bilan birga azob chekadi. Agar bir a’zo yuksalsa, qolgan barcha a’zolar u bilan birga sevinadi.
27 Endi sizlar Masihning tanasisizlar, har biringiz tananing alohida bir a’zosisiz.
28 Shu tariqa, Xudo imonlilar jamoatiga, birinchidan, havoriylarni, ikkinchidan, payg‘ambarlarni, uchinchidan, muallimlarni tayinlab berdi. Keyin ba’zilarga mo‘jiza ko‘rsatish qobiliyatini, boshqalarga esa shifo berish in’omini, yana boshqalarga yordam berish, boshqarish, noma’lum tillarda gapirish qobiliyatlarini ato qildi. 29 Hamma havoriymi?! Hamma ham Xudoning so‘zlarini yetkaza oladimi?! Hamma ham muallimmi?! Hamma mo‘jiza ko‘rsatadimi?! 30 Hammada shifo berish in’omi bormi?! Hamma ham noma’lum tillarda gapirish qobiliyatiga egami?! Hamma ham noma’lum tillarda aytilganlarni talqin qila oladimi?!
31 Sizlar ulug‘roq in’omlarga ega bo‘lishga intilinglar. Endi sizlarga eng oliy yo‘lni ko‘rsataman.

13–BOB

Sevgi — eng oliy xislat

1 Agar men insonlarning va farishtalarning tillarida gapirsam–u, lekin sevgim bo‘lmasa, jaranglaydigan mis cholg‘u, yangraydigan zil bo‘lib qolaman. 2 Agar menda Xudoning so‘zini yetkazish in’omi bo‘lsa, butun sirlardan voqif bo‘lib, har qanday bilimga ega bo‘lsam, agar tog‘larni ko‘chiradigan imonga ega bo‘lsam–u, lekin sevgim bo‘lmasa, men hech narsaga arzimas inson bo‘lib qolaman. 3 Bor mulkimni muhtojlarga taqsimlab bersam, menga sharaf keltirsin deb, hatto qiynoqlarga rozi bo‘lsam–da*, lekin sevgim bo‘lmasa, bularning menga foydasi yo‘q.
4 Sevgi sabr–toqatli va mehribondir. Sevgi hasad qilmaydi, maqtanmaydi, kekkaymaydi. 5 Sevgi odobsizlik qilmaydi, xudbinlik qilmaydi, achchiqlanmaydi, kek saqlamaydi. 6 Sevgi nohaqlikdan sevinmaydi, aksincha, haqiqat qaror topganda shodlanadi. 7 Sevgi har narsani ko‘taradi, hech qachon ishonchini yo‘qotmaydi, har qanday sharoitda umid saqlaydi, har narsaga toqat qiladi.

8 Xudoning so‘zini yetkazish in’omi ham, noma’lum tillarda gapirish in’omi ham yo‘q
bo‘ladi, bilim ham bartaraf bo‘ladi. Sevgi esa aslo ado bo‘lmaydi. 9 Mana, hozir bilimimiz
to‘liq emas, Xudoning so‘zini yetkazish qobiliyatimiz ham cheklangan. 10 Kamolot zohir
bo‘lganda esa to‘liqsiz narsalar bartaraf bo‘ladi. 11 Bolalik paytlarimda men bola kabi
gapirardim, bola kabi fikr qilardim, bola kabi mulohaza qilar edim. Voyaga yetgach,
bolalikni tashladim. 12 Shu singari, biz hozir xira oyna orqali ko‘rganday bo‘lyapmiz,
ammo vaqti kelganda aniq ko‘ramiz. Hozirgi bilganlarim to‘liq emas. O‘sha paytda esa
Xudo meni to‘liq bilgani kabi men ham hamma narsani to‘liq tushunaman.
13 Mana bu uch narsa bor: ishonch, umid va sevgi. Sevgi esa eng a’losidir.

14–BOB

Muqaddas Ruh ato qiladigan in’omlardan foydalanish

1 Sevgining payida bo‘linglar, shuningdek, Muqaddas Ruh beradigan in’omlarni
olishga, ayniqsa insonlarga Xudoning so‘zini yetkazishga intilinglar. 2 Kim noma’lum
tilda gapirsa, insonlarga emas, Xudoga gapiradi, chunki uni hech kim tushunmaydi. U
Ruhdan ilhomlanib, sirlarni gapiradi. 3 Xudoning so‘zini yetkazadiganlar esa odamlarni
imonda mahkam turishga undaydilar, ularga dalda beradilar, yupatadilar. 4 Odam
noma’lum tilda gapirganda, faqatgina o‘zining imonini mustahkamlaydi. Xudoning
so‘zini odamlarga yetkazadigan inson esa butun jamoatning imonini mustahkamlaydi.
5 Hammangiz ham noma’lum tillarda gapirishingizni istayman, lekin boshqalarga
Xudoning so‘zini yetkazadigan inson bo‘lishingizni undan ham ko‘proq xohlayman.
Chunki Xudoning so‘zini aytish odamlarga ko‘proq foyda keltiradi, lekin noma’lum tilda
gapirganning so‘zlari talqin qilinsa, bu ham jamoatning imonini mustahkamlaydi.
6 Xo‘sh, birodarlarim, men sizlarning oldingizga kelib, noma’lum tilda gapirsam–da,
lekin aytganlarim sizlarga hech qanday tushuncha, bilim bermasa, Xudoning so‘zini
yetkazmasa va yo‘l–yo‘riq ko‘rsatmasa, men sizlarga qanday foyda keltirgan bo‘laman?
7 Hatto jonsiz cholg‘u asboblari ham, masalan, nay yoki chang, farqli bir sado
chiqarmasa, nay yoki changda qanday musiqa chalinayotganini odam qayerdan biladi?
8 Agar burg‘u noaniq bir sado bersa, kim jangga tayyorgarlik ko‘rishni boshlaydi?
9 Shunga o‘xshab, agar sizlarning gapingiz tushunarsiz bo‘lsa, tinglovchilaringiz nima
gapirganingizni qanday bilib oladilar? Sizlar havoga gapirganday bo‘lasizlar.
10 Dunyoda tillar ko‘p va xilma–xildir, ulardan birortasi ham ma’nosiz emas. 11 Agar
men biror tilni tushunmasam, u tilda gapirayotgan odam uchun men ajnabiyman, u ham
men uchun ajnabiydir. 12 Modomiki, sizlar Ruh beradigan in’omlarga ega bo‘lishga
intilayotgan ekansizlar, butun jamoatning imonini mustahkamlaydigan in’omga boy
bo‘lish payida bo‘linglar. 13 Shuning uchun noma’lum tilda gapirgan odam o‘zining
aytganlarini talqin qilish qobiliyatini olish uchun ham ibodat qilsin. 14 Agar men
noma’lum tilda ibodat qilsam, ruhim ibodat qiladi, ongim esa bunda ishtirok etmaydi.
15 Xo‘p, bundan qanday xulosa chiqaraman? Ruhim bilan ibodat qilaman, ongim bilan
ham ibodat qilaman. Ruhim bilan hamdu sano aytaman, ongim bilan ham hamdu sano
aytaman. 16 Aks holda, agar sen ruhing bilan noma’lum tilda hamdu sano aytsang,
atrofdagilar qanday qilib sening shukrona ibodatingga qo‘shilib “omin” deb ayta oladi?
Ular sening aytayotganlaringni tushunmaydi–ku! 17 Shu tarzda shukrona aytganing
yaxshi, lekin bu atrofdagilarning imonini mustahkamlamaydi–ku! 18 Xudoga shukurki,

noma’lum tillarda men hammangizdan ham ko‘proq gapiraman. 19 Imonlilar jamoatida
esa noma’lum tilda minglab so‘zlarni gapirgandan ko‘ra, boshqalarga nasihat qilish
uchun tushunarli beshtagina so‘z aytishni afzal bilaman.
20 Ey birodarlarim, yosh bolalarday fikr qilmanglar. Aksincha, yomonlikka kelganda
chaqaloqdek bo‘lib, aql–idrokka kelganda esa yetuk insonlar bo‘linglar. 21 Muqaddas
bitiklarda* quyidagiday yozilgan:

> “Egamiz shunday demoqda:
> «Men bu xalqqa o‘zga tillarda,
> Begona xalqlarning og‘zi orqali gapiraman,
> Ammo shunda ham ular Menga quloq solmaydilar.»”*

22 Demak, noma’lum tillar imonlilar uchun emas, balki imonsizlar uchun alomatdir.
Xudoning so‘zini yetkazish in’omi esa imonsizlar uchun emas, imonlilar uchun
alomatdir. 23 Agar imonlilar jamoati bir joyda yig‘ilib, hammasi noma’lum tillarda
gapirayotgan bo‘lishsa, u yerda bundan bexabar bo‘lganlar, ya’ni imonsizlar bo‘lsa, ular:
“Bular jinni bo‘lib qolibdi”, deb aytmaydimi?! 24 Ammo hamma Xudoning so‘zini
tushunarli ravishda boshqalarga yetkazib berayotgan bo‘lsa, u yerdagi imonsiz odam
ularning aytganlarini eshitadi. Shundan keyin yuragini tekshirib ko‘radi–da, gunohkor
ekanligiga amin bo‘ladi. 25 Uning yuragidagi sirlari fosh bo‘ladi. Shunda u muk tushib:
“Chindan ham Xudo sizlar bilan ekan”, deydi–da, Xudoga sajda qiladi.

Jamoat yig‘ilishlaridagi tartib–qoida

26 Endi, birodarlar, bundan qanday xulosa chiqaramiz? Birga yig‘ilganingizda,
ba’zilar sano aytadi, ba’zilar ta’lim beradi, ba’zilar Xudoning so‘zini boshqalarga
yetkazadi, ba’zilar noma’lum tillarda gapiradi, yana ba’zilar esa ularning aytganlarini
talqin qiladi. Bularning hammasini imonlilar jamoatining imonini mustahkamlash
niyatida qilsinlar. 27 Agar ba’zilar noma’lum tillarda gapirmoqchi bo‘lsa, ikki kishi, eng
ko‘pi bilan uch kishi navbat bilan gapirsin, ularning aytganlari talqin qilinsin. 28 Agar
ta’bir qiluvchi bo‘lmasa, noma’lum tilda gapirayotgan odam jamoatda sukut saqlab,
o‘ziga va Xudoga gapirsin.
29 Shuningdek, ikki yoki uchta odam boshqalarga Xudoning so‘zini yetkazsin,
qolganlar esa aytilganlarga baho bersinlar. 30 O‘tirganlardan biriga Xudoning so‘zi kelsa,
o‘sha paytda gapirayotgan odam jim bo‘lsin. 31 Shunda hamma birin–ketin Xudoning
so‘zini boshqalarga yetkaza oladi, toki hamma ta’lim va dalda olsin. 32 Xudoning xabarini
yetkazayotganda inson o‘z ruhini boshqara oladi. 33 Axir, Xudo tartibsizlik Xudosi emas,
balki tinchlik Xudosidir. Barcha jamoatlarda, Xudoning aziz xalqi orasida bu namoyon
bo‘lib turibdi.
34 Jamoatda ayollar sukut saqlasin. Axir, ularga gapirish uchun ijozat berilmagan,
Muqaddas bitiklarda yozilganiday, ular itoatkor bo‘lishlari kerak. 35 Agar ular biror
narsani bilmoqchi bo‘lsalar, uyda o‘z erlaridan so‘rasinlar. Imonlilar jamoatida ayol
kishining gapirishi adabsizlikdir.
36 Ey Korinflik birodarlar, Xudoning so‘zi sizdan kelib chiqqanmi?! Nahotki u
faqatgina sizlarga yetib borgan bo‘lsa?! 37 Agar biror kishi: “Menda Xudoning so‘zini
yetkazish in’omi bor” yoki “Ruhdan maxsus bir in’om olganman”, deb o‘ylasa, mening
yozganlarim Rabbimiz Isoning amri ekanligini e’tirof etsin. 38 Ammo ular buni tan

olmasalar, ularga e’tibor bermanglar.

39 Shunday ekan, birodarlarim, boshqalarga Xudoning so‘zini yetkazishga intilinglar,
boshqalarning noma’lum tillarda gapirishiga to‘sqinlik qilmanglar. 40 Faqat hammasi
odob va tartib bilan qilinsin.

15–BOB

Iso Masih o‘likdan tirilgani haqida

1 Birodarlarim, men o‘zim sizlarga yetkazgan Xushxabarning mohiyatini yana bir bor
eslatib o‘tmoqchiman. Sizlar bu Xushxabarni qabul qildingiz, u imoningizning asosidir.
2 O‘sha Xushxabar orqali najot topasiz, ammo sizlar men aytgan o‘sha Xushxabar orqali
yetishgan imoningizda mahkam turishingiz kerak, aks holda, imoningiz bekor bo‘ladi.

3 Menga berilgan eng muhim ta’limotni sizlarga yetkazdim. Bu ta’limot
quyidagichadir: Muqaddas bitiklarga muvofiq*, Masih gunohlarimiz uchun o‘lgan.
4 Keyin U dafn qilindi, uchinchi kuni esa tirildi. Bularning hammasi Muqaddas bitiklarga
muvofiq sodir bo‘ldi. 5 Avval U Butrusga*, so‘ngra o‘n ikki shogirdiga ko‘rindi. 6 Undan
keyin bir vaqtning o‘zida besh yuzdan ko‘proq birodarlarga ko‘rindi. Ularning aksariyati
hozirga qadar tirik, ba’zilari esa dunyodan ko‘z yumib ketganlar. 7 Undan so‘ng Masih
Yoqubga* va qolgan barcha havoriylarga ko‘rindi. 8 Men rivojlanmay qolgan bir
homiladay bo‘lsam–da, nihoyat menga ham ko‘rindi*.

9 Axir, men havoriylarning eng arzimasiman, havoriy deb atalishga ham loyiq
emasman, chunki men Xudoning jamoatini quvg‘in qilardim. 10 Ammo Xudoning inoyati
tufayli endi havoriyman. Uning menga ko‘rsatgan inoyati zoye ketmadi, zero, men
havoriylarning hammasidan ham ko‘proq mehnat qildim. Lekin aslida mehnat qilgan
men emas, balki Xudoning inoyatidir. 11 Sizlar Xushxabarni mendan eshitdingizmi yoki
boshqalardanmi, farqi yo‘q, chunki biz bir Xushxabarni va’z qilamiz, sizlar esa o‘sha
Xushxabarga ishongansiz.

O‘likdan tirilish haqida

12 Masih o‘likdan tirilgan, deb va’z qilinayotgan ekan, qanday qilib ba’zilaringiz,
o‘likdan tirilish degan narsa yo‘q, deb aytyapsizlar?! 13 Axir, o‘likdan tirilish bo‘lmasa,
Masih ham tirilmagan ekan–da! 14 Masih tirilmagan bo‘lsa, Xushxabarni va’z qilishimiz
bekor, sizlarning imoningiz ham bekor. 15 Agar rostdan ham o‘liklar tirilmasa va Masihni
Xudo tiriltirmagan bo‘lsa, bunday holda, biz Xudo haqida yolg‘on shohidlik bergan
bo‘lamiz, chunki biz: “Xudo Masihni tiriltirdi”, deb shahodat berib yuribmiz. 16 O‘liklar
tirilmas ekan, Masih ham tirilmagan bo‘ladi. 17 Agar Masih tirilmagan bo‘lsa, sizlarning
imoningiz behuda, sizlar hali ham gunohga botganingizcha yuribsizlar. 18 Shunday
bo‘lsa, Masihga ishongan holda hayotdan ko‘z yumganlar butunlay halok bo‘lib
ketibdilar–da! 19 Agar biz yolg‘iz bu hayot uchun Masihga umid bog‘lagan bo‘lsak, eng
baxtsiz insonlar ekanmiz.

20 Vaholanki, Masih haqiqatan ham tirildi! U birinchi bo‘lib tirildi, shu tariqa o‘likdan
tiriladiganlarning orasida hosilning ilk samarasiday bo‘ldi. 21 O‘lim bir inson orqali
dunyoga kirdi. Shunga o‘xshab, o‘liklarning tirilishi ham bir Inson orqali sodir bo‘ladi.
22 Axir, bu dunyoga o‘lim Odam Ato tufayli kirib keldi, endi Iso Masih orqali hamma
tiriladi. 23 Hamma narsa o‘z navbati bilan sodir bo‘ladi: mana, Masih birinchi bo‘lib
tirildi, Masih kelganda esa Unga tegishli bo‘lganlar tiriladi. 24 Shundan so‘ng Masih har

qanday hokimiyatni, hukmronlik va qudratni barbod qilib, saltanatni samoviy Ota — Xudoga topshirganda oxirat bo‘ladi.

25 Masihning hamma dushmanlari Uning oyoqlari ostiga poyandoz qilinmaguncha, U
hukmronlik qilishi kerak. 26 Shunda oxirgi dushman — o‘lim ham barham topadi. 27 Axir,
Muqaddas bitiklarga ko‘ra, Xudo hamma narsani Masihga tobe qilib, Uning oyoqlari
ostiga tashlagan*. Garchi shunday bo‘lsa–da, borliqni Unga tobe qilgan Xudo bundan
istisnodir. 28 Xudo hamma narsani Masihga tobe qilgandan keyin, O‘g‘il ham Xudoga tobe
bo‘ladi, toki Xudo borliq ustidan butunlay hukmron bo‘lsin.

29 Ba’zilaringiz o‘lganlar uchun suvga cho‘mdirilayotgan ekansiz*. O‘liklar tirilmas
ekan, ularning o‘rniga cho‘mdirilishning qanday foydasi bor? 30 Xo‘sh, nima uchun bizlar
har daqiqa o‘z hayotimizni xavf–xatar ostiga qo‘yyapmiz? 31 Har kuni o‘limga ro‘baro‘
bo‘layotganim rost! Birodarlarim, Rabbimiz Iso Masih sizlarning hayotingizda
qilayotgan ishlaridan faxrlanayotganim chin bo‘lganiday, aytayotgan gaplarimda ham
biror yolg‘on yo‘q. 32 Agar faqatgina bu dunyoga umid bog‘lagan bo‘lsam, nima uchun
Efes shahrida hayotimni xavf ostiga qo‘ydim?!* Agar o‘liklar tirilmas ekan, unda
“kelinglar, yeb–ichib qolaylik, erta–indin o‘lib ketamiz–ku”* deyish o‘rinli bo‘lmaydimi?!
33 Lekin adashmanglar, axir, “yomon ulfatlar yaxshi axloqni buzadi”, deyishadi–ku!
34 Ko‘zlaringizni ochib, o‘zingizga kelinglar! Bas endi, gunoh qilavermanglar. Ko‘rinib
turibdiki, ba’zilaringiz Xudoni bilmaysizlar. Sizlarni uyaltiray deb, bularni aytyapman.

Tirilgan tananing xususiyatlari

35 Ehtimol, biror kishi: “O‘liklar qanday qilib tirilarkan? Ularning tanalari qanaqa
bo‘larkan?” deb so‘rar. 36 Qanday ahmoqona savol–a bu! Axir, ekilgan urug‘ o‘lmasa,
o‘simlik o‘sib chiqmaydi–ku! 37 Bug‘doy bo‘ladimi yoki boshqa biror narsami, ekin
ekkaningda, o‘sib chiqadigan o‘simlikni emas, uning urug‘ini ekasan–ku! 38 Xudo uruqqa
O‘zi istagan bir jismni bag‘ishlaydi, har bir urug‘dan alohida bir jismni hosil qiladi.

39 Ko‘rib turibmizki, jonzotlarning ham tanalari har xil, insonlarniki boshqacha,
hayvonlarniki boshqacha, qushlarniki boshqacha, baliqlarniki boshqacha. 40 Samoviy va
dunyoviy jismlar ham bor. Lekin samoviy jismlarning ko‘rki boshqa, dunyoviylarniki
boshqa. 41 Quyoshning ko‘rki boshqa, oyning ko‘rki boshqa hamda yulduzlarning ko‘rki
boshqa. Axir, yulduzlar ham o‘z ko‘rkiga yarasha bir–biridan farq qiladi.

42 O‘liklarning tirilish jarayoni ham quyidagiga o‘xshaydi: ekilgan urug‘dan o‘simlik
o‘sib chiqqanday, o‘ladigan tanamiz o‘lmaydigan bo‘lib tiriladi. 43 Hozirgi ojiz va xor
bo‘lgan tanamiz, qudratu ulug‘vorlikka to‘la ravishda tiriladi. 44 Hozirgi tanamiz moddiy
bir jism bo‘lsa, tiriladigan tanamiz ruhiy bir tana bo‘ladi. Axir, moddiy tana bor ekan,
ruhiy tana ham bor–da! 45 Muqaddas bitiklarda yozilgani bo‘yicha: “Birinchi odam —
Odam Ato tirik jon bo‘ldi.”* Oxirgi Odam Ato, ya’ni Iso Masih esa hayotbaxsh ruh bo‘ldi.

46 Mana shundan ko‘rinib turibdiki, ruhiy tana emas, moddiy tana birinchi kelgan.
Moddiy tana o‘tib ketgandan keyingina, ruhiy tana keladi. 47 Birinchi odamning tanasi
moddiy jismdir, u tuproqdan yaratilgan, ikkinchi Odam, ya’ni Masih esa samoviydir.
48 Tuproqdan yaratilgan ilk odam qanday bo‘lsa, qolgan hamma odamlar ham
shundaydir. Samoviy Odam, ya’ni Masih qanday bo‘lsa, samodagilar ham xuddi Unga
o‘xshaydilar. 49 Biz tuproqdan yaratilgan odamga o‘xshar ekanmiz, bir kun kelib,
samoviy Odamga ham o‘xshagan bo‘lamiz.

50 Ey birodarlar! Sizlarga quyidagilarni aytmoqchiman: qon va etdan iborat bo‘lgan

tanalarimiz Xudoning Shohligidan bahramand bo‘la olmaydi. Bu foniy tana mangu
hayotga ega bo‘la olmaydi. 51 Men sizlarga bir sirni bildirmoqchiman: biz hammamiz
ham o‘lmaymiz, ammo hammamiz o‘zgaramiz. 52 To‘satdan, ko‘z ochib yumguncha,
oxirzamon karnayi chalinganda o‘zgaramiz. Ha, karnay chalinadi va shu onda
marhumlar hech o‘lmaydigan bo‘lib tiriladilar. Shunda biz ham o‘zgaramiz. 53 Chunki
bizning o‘ladigan tanamiz o‘lmaydigan tanaga, foniy tanamiz mangu tanaga aylanishi
kerak. 54 O‘ladigan tanamiz o‘lmaydigan tanaga, bu foniy tanamiz mangu tanaga
aylanganda, Muqaddas bitiklarda yozilgan quyidagi so‘zlar amalga oshadi:

“O‘lim yengilib, yo‘q bo‘ldi.
55 Ey o‘lim, sening zafaring qayerda?!
Ey o‘lim, sening nishing qayerda?!”*

56 O‘limning nishi gunohdir. Gunohning quvvati esa qonundan kelib chiqdi. 57 Xudoga
shukurlar bo‘lsin! U Rabbimiz Iso Masih orqali bizga g‘alaba ato qilgan.
58 Shuning uchun, ey aziz birodarlarim, hech ikkilanmay, imoningizda mahkam
turinglar. Hamisha Rabbimiz Isoga xizmat qilishga bag‘ishlanib, yanada g‘ayratli
bo‘linglar. Axir, Rabbimiz yo‘lida qilgan mehnatingiz samarasiz qolmasligini bilasizlar–
ku!

16–BOB

Quddusdagi jamoat uchun mablag‘ yig‘ish haqida

1 Endi Xudoyimizning Quddusdagi azizlariga moddiy mablag‘ to‘plash* masalasiga
kelsak, sizlar ham Galatiya hududidagi jamoatlarga bergan yo‘l–yo‘riqlarimga amal
qilinglar. 2 Har yakshanba kuni har bir odam qo‘lidan kelganicha bir miqdor pulni olib
qo‘ysin, toki oldingizga borganimda pul yig‘ishga hojat bo‘lmasin. 3 Borganimdan keyin,
ehsonlaringizni imonlilarga topshirsin deb, o‘zingiz munosib ko‘rgan kishilarni
Quddusga jo‘nataman. Ularning har birini tanishtirib, maktub yozib beraman. 4 Agar
borishga imkon bo‘lsa, o‘zim ham ular bilan birga boraman.

Pavlusning rejalari va yo‘l–yo‘riqlari

5 Makedoniyadan o‘tish niyatim bor. Shundan keyin sizlarning oldingizga boraman.
6 Sizlar bilan birmuncha vaqt bo‘laman, deb o‘ylayman, balki hatto qishni ham sizlar
bilan o‘tkazarman. Undan keyin qayerga bormoqchi bo‘lsam ham, sizlarning
yordamingiz bilan safarimni yana davom ettiraman. 7 Axir, sizlarni faqatgina yo‘l–
yo‘lakay ko‘rishni istamayman, Rabbimiz Iso xohlasa, sizlar bilan ko‘proq vaqt
o‘tkazaman, deb umid qilaman. 8 Lekin Hosil bayramiga* qadar Efes shahrida qolaman.
9 Chunki bu yerda menga qarshi chiqqanlar ko‘p bo‘lishiga qaramay, ta’sirchan faoliyat
ko‘rsatishim uchun yo‘l ochildi.
10 Timo‘tiy* oldingizga borganda unga g‘amxo‘rlik qilinglar, u orangizda xotirjam
yursin, chunki u ham menga o‘xshab Rabbimiz Iso xizmati bilan mashg‘ul. 11 Hech kim
unga past nazar bilan qaramasin. Timo‘tiy mening oldimga qaytib kelayotganda, uni
eson–omon kuzatib yuboringlar. Uning birodarlar bilan birga kelishini kutib turibman.
12 Birodarimiz Apollosga* kelsak, uni birodarlarga qo‘shilib sizlarning oldingizga
borishga ko‘p undadim, lekin uning hozir hech borgisi yo‘q. Imkoni bo‘lsa keyinroq

borar ekan.

13 Hushyor bo‘linglar, imonda mahkam turib, jasoratli va kuchli bo‘linglar. 14 Hamma
narsani mehr–muhabbat bilan qilinglar. 15 Birodarlar, Stefanasning xonadonini
bilasizlar. Ular Axaya viloyatida* birinchi bo‘lib Masihga imon keltirgan va o‘zlarini
Xudoning aziz xalqiga xizmat qilishga bag‘ishlaganlar. Sizlardan bir iltimosim bor:
16 bunday insonlarni va ular bilan birga berilib xizmat qilayotganlarni hurmat qilib,
ularning aytganlarini qilinglar. 17 Stefanas, Fortunatus va Axaykusning kelganidan
xursand bo‘ldim, ular sizlarning yo‘qligingizni bildirmadi. 18 Ular sizlarning ruhingizni
ko‘targandek, mening ham ruhimni ko‘tardilar. Bunday insonlarni qadrlanglar.

So‘nggi salomlar

19 Asiya viloyatidagi jamoatlar sizlarga salom yo‘llayaptilar. Akil bilan Priskilla* va
ularning uyida yig‘iladigan jamoat ham sizlarga — Rabbimiz Isoning yo‘lidagi
hamkorlariga otashin salom aytyapti. 20 Hamma birodarlarimiz salom aytyaptilar. Bir–
biringiz bilan o‘pishib ko‘rishinglar.

21 Men, Pavlus, mana shu maktubning yakunini o‘z qo‘lim bilan yozyapman*. 22 Kimki
Rabbimiz Isoni yaxshi ko‘rmasa, u la’nati bo‘lsin! Ey Rabbimiz, kelgin!* 23 Rabbimiz
Isoning inoyati sizlarga yor bo‘lsin. 24 Sizlarni yaxshi ko‘raman, chunki hammamiz Iso
Masihga tegishlimiz*.

IZOHLAR

1:1 *Sostenis* — Havoriylar 18:17 da aytib o‘tilgan kishi bo‘lishi mumkin.

1:11 *opamiz* — ularning tug‘ishgan opasi emas, imonli ayollarga shunday murojaat qilingan.

1:12 *Apollos* — Havoriylar 18:24-19:1 ga qarang.

1:12 *Butrus* — yunoncha matnda *Kifas*, Butrusning oramiycha ismi (Yuhanno 1:42 ga qarang).

1:19 Muallif bu o‘rinda Ishayo 29:14 ning qadimiy yunoncha tarjimasidan foydalangan.

1:23 *xochga mixlangan Masih* — Masih unvonini yahudiylar kelajakda ularni dushmanlaridan qutqaradigan va butun yer yuzidagi xalqlar ustidan hukmronlik qiladigan insonga nisbatan ishlatganlar (to‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi MASIH so‘ziga qarang). Xochdagi o‘lim eng sharmandali o‘lim edi (to‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi XOCH so‘ziga qarang). Yahudiylar yog‘ochga osilgan odamni Xudo la’natlagan deb hisoblashardi (Qonunlar 21:23, Galatiyaliklar 3:13 ga qarang). Mana shu sabablarga ko‘ra, ko‘p yahudiylar (ilgari Pavlusning o‘zi ham) “Isoga va’da qilingan Qutqaruvchi” degan haqiqatni Xudoga shak keltirish deb bilganlar. G‘ayriyahudiylar uchun esa odamzodning Qutqaruvchisi O‘z dushmanlarining qo‘lida jon bergani, ayniqsa, mana shunday sharmandali holatda o‘lgani umuman aqlga sig‘maydigan hodisa edi.

1:23 *g‘ayriyahudiylar* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *yunonlar* (shu bobning 24–oyati izohiga qarang).

1:24 *g‘ayriyahudiylar* — yunoncha matnda *yunonlar*. O‘sha davrda *yunonlar* so‘zi nafaqat millati yunon bo‘lgan, balki yunon tilida so‘zlashuvchi, yunon urf–odatlariga rioya qiluvchi odamlarga nisbatan ham ishlatilgan.

1:31 *…kim maqtanmoqchi bo‘lsa, Egamizni bilaman, deb maqtansin* — Yeremiyo 9:23-24 ga qarang.

2:1 *Xudoning sirli rejasi* — yunoncha matndan (yana shu bobning 7-10–oyatlariga qarang). Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *Xudoning shohidligi* yoki *Xudo to‘g‘risidagi shohidlik*.

2:9 Ishayo 64:4 ga qarang.

2:13 *…Muqaddas Ruh o‘rgatayotgan so‘zlar bilan ruhiy haqiqatni talqin qilamiz* — yoki *…Muqaddas Ruh o‘rgatayotgan so‘zlar bilan gapirib, Muqaddas Ruhga tobe bo‘lganlarga ruhiy haqiqatni talqin qilamiz*.

2:16 Ishayo 40:13 ga qarang.

3:4 *Apollos* — Havoriylar 18:24-19:1 ga qarang.

3:19 Ayub 5:13 ga qarang.

3:20 Zabur 93:11 ga qarang.

3:22 *Butrus* — yunoncha matnda *Kifas*, Butrusning oramiycha ismi (Yuhanno 1:42 ga qarang).

4:6 *Apollos* — Havoriylar 18:24-19:1 ga qarang.

4:16 *…mendan o‘rnak olinglar* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *men Masihdan o‘rnak olganimdek mendan o‘rnak olinglar*.

4:17 *sevimli o‘g‘lim Timo‘tiy* — Timo‘tiy Pavlusning o‘z o‘g‘li emas edi. U Pavlusning sodiq yordamchisi bo‘lgani uchun Pavlus uni, o‘g‘lim, derdi. Havoriylar 16:1-3, Filippiliklar 2:20-22 ga qarang.

5:5 *…uning tanasi halokatga uchrasin…* — yoki *…uning gunohkorona xulq–atvori yo‘q qilinsin…*. Bu o‘rinda ishlatilgan yunoncha so‘z odamning tanasiga yoki uning xudbin istaklariga ishora qilishi mumkin.

5:7 *xamirturush* — majoziy ma’noda ishlatilgan bo‘lib, odatda boshqalarga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan ta’limotlar va xulq–atvor nazarda tutilgan. Yana Chiqish 12:15, 13:3-10 ga qarang.

5:8 *Fisih bayrami* — Fisih ziyofatiga va undan keyin yetti kun davomida nishonlanadigan Xamirturushsiz non bayramiga ishora. Bu bayramlar Isroil xalqining Misrdagi qullikdan ozod bo‘lishi munosabati bilan nishonlanar edi (Chiqish 12:1-42, 13:3-10 ga qarang). Pavlus bayramni nishonlash haqida majoziy ma’noda gapiryapti. Bu o‘rinda bayram masihiylarning gunoh qulligidan ozod bo‘lganini va ular Egamizga manzur, pok hayot kechirishlari kerakligini bildiruvchi ramzdir.

5:9 *oldingi maktubim* — Pavlus oldin ham Korinfliklarga maktub yozgan edi, ammo bu maktub saqlanib qolmagan. Chamasi, Korinfliklar Pavlusning o‘sha maktubdagi jinsiy axloqsiz bo‘lganlar bilan qanday munosabatda bo‘lish haqidagi gaplarini noto‘g‘ri tushunganlar (shu bobning 10–oyatiga qarang).

6:13 *“Ovqat qorin uchun, qorin esa ovqat uchun, Xudo ikkalasini ham yo‘q qiladi–ku”* — bu jumla Korinfliklar orasida maqol bo‘lib, odamlar oziq–ovqatlar borasida erkin ekanligiga urg‘u bergan. Ular, oziq–ovqatga oid qoidalarga rioya qilmasa ham bo‘ladi, deb hisoblardilar. Pavlus bunga qo‘shilardi. Lekin ba’zi Korinfliklar bu kabi erkinlikni jinsiy hayotiga tatbiq etib, zino qilish mumkin, deb o‘ylashardi. Pavlus esa ularning bu qarashiga mutlaqo qarshi edi.

6:16 Ibtido 2:24 ga qarang.

6:20 *…o‘z tanangiz bilan Xudoni ulug‘langlar* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *Xudoga tegishli bo‘lgan tanangiz va ruhingiz bilan Xudoni ulug‘langlar*.

7:5 *…ibodatga bag‘ishlash…* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *ibodatga va ro‘za tutishga bag‘ishlash*.

7:10 *U…Rabbimiz Isodandir: xotin eri bilan ajrashmasin* — bu Isoning ajralish haqidagi ta’limotining xulosasidir (Matto 5:32, 19:3-9, Mark 10:2-12 ga qarang).

7:14 *…imonsiz er imonli xotini tufayli poklanadi* — Korinfdagi ba’zi imonlilarning tushunchasi bo‘yicha, imonga kelgan odam imonsiz turmush o‘rtog‘i bilan ajrashishi kerak emish, chunki imonsiz turmush o‘rtoq tufayli butun oila Xudoning nazarida nopok hisoblanarmish. Pavlus bunday tushunchani noto‘g‘ri, deb aytadi va masihiylarni o‘zlarining imonsiz eri yoki xotini bilan ajrashmaslikka undaydi. Shu bobdagi 12-14–oyatlarning mohiyati shundaki, Iso Masihga imon keltirgan inson o‘zining imonsiz turmush o‘rtog‘i bilan ajrashmasligi kerak, chunki Xudo bunday nikohni nopok yoki

harom deb hisoblamaydi.

7:18 *sunnatli* — ya'ni yahudiylar. Sunnat Xudoning Ibrohim va uning avlodi bilan qilgan ahd belgisi edi (Ibtido 17:9-14 ga qarang). Sunnat yahudiylarning Xudoga sodiqligini va Uning tanlagan xalqiga tegishli ekanini ko'rsatadi.

7:18 *sunnatsiz* — ya'ni g'ayriyahudiylar.

7:33-34 *...qayg'uradi. 34...Hozir ersiz bo'lgan ayollar va erga tegmagan qizlarning ham tashvishi...* — yunoncha matndan. Ba'zi yunon qo'lyozmalarida *...qayg'uradi. Erli xotinlar bilan erga tegmagan qizlar orasida ham farq bor. 34 Ersiz bo'lgan ayollarning tashvishi....*

7:36 *Bu gunoh emas* — chamasi, Korinf imonlilarining ba'zilari nikohga, umuman erkak va ayol orasidagi jinsiy aloqalarga salbiy qarar edilar (shu bobning 1–oyatiga qarang). Pavlusning fikri bo'yicha, erkak kishi uylanishni xohlasa, uylanishi kerak. Boshqalarning tazyiqi ostida uylanishdan voz kechmasligi lozim. Yoki shu holatning aksi ham bo'lishi mumkin. Agar erkak kishi bir umr bo'ydoq o'tishni xohlasa, o'z xohishiga qarab ish tutsin. Ba'zi olimlarning fikri bo'yicha, shu bobning 36-37–oyatlarida o'z qaylig'iga bo'lgan ehtirosini tiya olmaydigan erkakka ishora qilingan. Bunday erkak tezroq uylanishi kerak. Ammo ehtirosini tiya oladigan erkak bir umr bo'ydoq o'tsa ham bo'ladi.

8:1 *Butga keltirilgan qurbonlik go'shti* — o'sha paytlarda bozorlarda asosan butlarga qurbonlik qilingan hayvonlarning go'shti sotilardi. Shuningdek, butlarga qurbonlik keltirgan odamlar do'stlarini mehmonga chaqirib, qurbonlik go'shtidan tayyorlangan taomni birga baham ko'rardilar (shu bobning 10–oyatiga qarang). Ba'zi masihiylar bunday go'shtdan yeyishni gunoh, butparastlik deb bilardilar. Boshqa bir masihiylar esa bunday go'shtdan yeyishni gunoh, deb hisoblamasdilar. Yana 10:23-32 ga qarang.

9:5 *Rabbimiz Isoning ukalari* — Mark 6:3 ga qarang.

9:5 *Butrus* — yunoncha matnda *Kifas*, Butrusning oramiycha ismi (Yuhanno 1:42 ga qarang).

9:9 Qonunlar 25:4 ga qarang.

9:13 *ruhoniy* — Quddusdagi Ma'badda xizmat qiladigan e'tiborli din rahnamosi. To'liqroq ma'lumotga ega bo'lish uchun lug'atdagi RUHONIY so'ziga qarang.

9:14 *Rabbimiz Isoning O'zi buyurgani bo'yicha...* — Matto 10:10, Luqo 10:7 ga qarang.

10:1 *Ularning hammasi bulut ostida cho'lni kezib, Qizil dengizdan o'tdilar* — Chiqish 13:21-22, 14:19-29 ga qarang.

10:3 *Mo'jiza orqali ularning hammasiga bir xil ovqat berildi* — Chiqish 16:4-31, 35 ga qarang.

10:4 *Mo'jiza orqali...ular qoyadan suv olib ichdilar* — Chiqish 17:1-7, Sahroda 20:2-11 ga qarang.

10:7 Chiqish 32:6 ga qarang.

10:8 *Ular...nobud bo'ldi* — Sahroda 25:1-9 ga qarang.

10:9 *...ulardan ba'zilari shunday qilib, ilonlarning zahridan halok bo'ldilar* — Sahroda 21:4-6 ga qarang.

10:10 *Ulardan ba'zilari...nobud qildi* — Sahroda 16:41-49 ga qarang.

10:16 *Biz dasturxon atrofida jam bo‘lib o‘tirganimizda…* — Isoning o‘limini xotirlash maqsadida birga yig‘ilib, taom tanovul qilishga ishora qilingan (11:23-26, Mark 14:22-25 ga qarang).

10:26 Zabur 23:1 ga qarang.

10:28-29 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida shu jumladan keyin quyidagi so‘zlar qo‘shimcha qilingan: *Zero “Egamiznikidir zamin, undagi butun borliq.”*

11:10 …*kuzatib turgan farishtalar tufayli*… — Pavlus ushbu oyatda ayollarga berayotgan ko‘rsatmasiga nima sababdan bu jumlani qo‘shgani aniq emas. Kitobda farishtalar haqida so‘z yuritilgani uchun, shunga bog‘liq bir narsani nazarda tutgan bo‘lishi mumkin, lekin buni aniqlashning iloji yo‘q. Ba’zi olimlar Pavlus bu yerda 4:9 dagi farishtalar bu dunyoda bo‘ladiganlarni kuzatib turibdilar degan ma’noni beradigan fikrga ishora qilyapti, deb taxmin qiladilar. Bu fikrga ko‘ra, farishtalarning kuzatib turishi imonli odamda ahloqsizlik yoki behurmatlik qilayotganida javobgarlik hissini tug‘dirishi kerak. Mana shu fikr Muqaddas Kitobda aytib o‘tilgan, farishtalar Xudoga sajda qilishda va qonunlar berilishida ishtirok etganlar, degan g‘oyaga mos keladi (Luqo 15:10, Galatiyaliklar 3:19, Ibroniylar 1:6, Vahiy 8:3 ga qarang). Pavlus imonlilar kelajakda hatto farishtalarni ham hukm qilishda ishtirok etishlariga ham ishora qilayotgan bo‘lishi mumkin (6:3 ga qarang). Shunday ekan, imonlilar har doim, ayniqsa sajda paytida o‘zlarini to‘g‘ri tutishlari kerak.

11:10 …*ayol kishi boshini yopish haqida to‘g‘ri qaror chiqarishi kerak* — yunoncha matndan so‘zma–so‘z tarjima: *ayol kishi o‘z boshi ustidan hokimiyatga ega bo‘lishi kerak*. Bu yerda ishlatilgan yunoncha matndagi ibora *hukmronlik qilish*, *qaror chiqarish*, *haq–huquqga ega bo‘lish* degan ma’nolarda ishlatiladi. Demak, bu ibora ayol kishi o‘z boshiga biror narsa o‘rash yoki o‘ramaslik haqida qaror chiqarishga hokimiyati, haq–huquqi bor, degan ma’noni bildiradi. Ayni paytda bu ibora ayol kishida har bir vaziyatda o‘zini to‘g‘ri tutish javobgarligi borligini ham ko‘rsatadi. An’anaviy ta’limotlarga ko‘ra, ba’zi bir tarjimalarga asoslangan holda, yunoncha matndagi ibora ayolning boshi ustida u o‘z erining hokimiyati ostida ekanligini ko‘rsatadigan bir belgi bo‘lishi kerak, deb tushunilgan. Ammo Pavlus foydalangan yunon tilidagi so‘zlar va gap qurilishi bu ma’noga to‘g‘ri kelmaydi. Ushbu ibora ayolga nisbatan boshqalar tomonidan qilinadigan harakatga emas, balki ayol o‘zi qilishi kerak bo‘lgan harakatga ishora qiladi, ya’ni grammatika jihatidan “ayol” gap egasi. Bundan tashkari, bu gapda Pavlus yunon tilida “belgi” so‘zini ham ishlatmagan. Muqaddas Kitobning hech bir joyida *hokimiyatga ega bo‘lish* iborasining aniq, ya’ni aktiv nisbatdagi shakli majhul, ya’ni passiv ma’noni berish uchun ishlatilmagan. Har bir joyda bu ibora gap egasining o‘z ustidan yoki boshqalar ustidan bo‘lgan hokimiyatini ifodalaydi. Majhul, ya’ni passiv ma’no nazarda bo‘lgan parchalarda iboraning majhul nisbat shakli ishlatilgan. Ushbu kitobning umumiy kontekstidan biz bilamizki, Korinfliklarning hokimiyat to‘g‘risida o‘ziga xos tushunchalari bor edi. Pavlus ularga bu haqda yozishga majbur bo‘lgan edi. Qisqacha qilib aytganda, Korinfliklar *hokimiyat* tushunchasini su’istemol qilib, o‘zlarining imonlilar sifatida ega bo‘lgan *erkinligi* yoki *huquqlarini* ifoda etish uchun ishlatar edilar. 6:12 da ba’zi Korinfliklar *xohlaganimni qilishga haqim bor* (ya’ni *boshqalar bilan ishim yo‘q, nima xohlasam shuni qilaman*), deb o‘zlarining nojo‘ya xatti–harakatlarini oqlayotgan edilar. Pavlus ularning Masih orqali olgan erkinligi borligini qayta–qayta

tasdiqlaydi, lekin bu erkinlik boshqalarga bo‘lgan mehr–muhabbat tufayli ozgina cheklanishi kerakligini ham aytib o‘tadi. Ayniqsa ularning erkinlik bilan qilayotgan xatti–harakati boshqalarga zarar keltirsa yoki boshqalarni xafa qiladigan bo‘lsa, Pavlus ularga o‘z erkinliklarini cheklashni maslahat beradi. Bu holat butlarga qurbon qilingan go‘sht masalasida yaqqol ko‘rinib turibdi (8:9 ga qarang). 11:2-16–oyatlarda Pavlus jamoatga uyat keltiradigan masala haqida yozyapti. Ba’zi ayollar boshlariga hech narsa o‘ramay yurgan ekanlar, o‘sha zamon va u madaniyatda bu xatti–harakat sharmandalik deb hisoblangan ekan. Bu ayollar Masih orqali ega bo‘lgan erkinliklariga ishora qilib, kiyim–kechak haqidagi qoidalar endi ularga daxli yo‘qligini ko‘rsatmoqchi bo‘lgan. Pavlus ularning Masih orqali ega bo‘lgan erkinligini tasdiqlaydi, lekin ular erkaklardan *mustaqil* emasliklarini ham aytib o‘tadi (shu bobning 11–oyatiga qarang), ya’ni ular o‘z xatti–harakatlari bilan faqat o‘zlarini emas, boshqalarni ham o‘ylayotganlarini ko‘rsatishlari kerak. Ular o‘z xohishlari bilan, jamoatdagi boshqalarga bo‘lgan mehr–muhabbatu hurmat tufayli boshlariga ro‘mol o‘rashlari lozim. Pavlus o‘z gapida *erkaklar…ayollar…* (shu bobning 7-9–oyatlariga qarang) deb yozgandan keyin, 11–oyatning boshida *ayollar…erkaklar…*, deb bu so‘zlarning o‘rnini o‘zgartirishining o‘zi shu bobning 10–oyatida nimani nazarda tutganini ko‘rsatadi. Ya’ni, 11–oyatning birinchi qismida u ayollarga: ular boshqalardan alohida, mustaqil ravishda yashamayotganlarini eslatmoqchi. Ayollar donolik va mehr bilan erkinliklarini ifodalashlari kerak. Ular jamoatdagi boshqalarning his–tuyg‘ularini inobatga olgan holda, o‘z axloqlari boshqalarga qanaqa ta’sir qilayotgani haqida o‘ylab, xatti–harakat qilishlari kerak. Bu qoida barcha imonlilarga, ayolu erkaklarning hammasiga tegishli bo‘lib, har bir imonli o‘z hayot tarzi bilan mana shunga asoslanib yashayotganini ko‘rsatishi kerak.

11:17 *Yig‘ilishlaringiz* — Isoning o‘limini xotirlash maqsadida birga yig‘ilib, taom tanovul qilishga ishora qilingan (Mark 14:22-25 ga qarang).

11:23-24 *Rabbimiz Iso…[24]…shunday dedi…* — Luqo 22:19-20 oyatlarga va Luqo 22:20 izohiga qarang.

11:29 *Rabbimizning tanasini pisand qilmasdan…* — yunoncha matnda *Tanani pisand qilmasdan…*. Bu o‘rinda Pavlus tana deganda nafaqat Isoning jismoniy azoblariga, balki “Masihning tanasi” deb atalganlarga, ya’ni Iso Masihga ishongan odamlarga ham ishora qiladi (12:12-27 ga qarang). Korinf jamoatidagi masihiylar Rabbimizning o‘limini xotirlash maqsadida yig‘ilganlarida ularning ba’zilari noma’qul ravishda taom iste’mol qilib, jamoatdagi ahillikka raxna solayotgan edi (shu bobning 17-22–oyatlariga qarang).

12:13 *yunonlar* — ya’ni g‘ayriyahudiylar. 1:24 izohiga qarang.

13:3 *…menga sharaf keltirsin deb, hatto qiynoqlarga rozi bo‘lsam–da…* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *badanimni yondirishga topshirsam–u*.

14:21 *Muqaddas bitiklarda…* — yunoncha matnda *Qonunda…* (shu bobning 34–oyatida ham bor). Ba’zan Eski Ahd kitoblari to‘plamiga nisbatan qonun so‘zi ishlatilgan.

14:21 Ishayo 28:11-12 ga qarang.

15:3 *Muqaddas bitiklarga muvofiq* — Luqo 24:25-27, 32, 44-48 ga qarang. Odatda Eski Ahd kitoblari to‘plamiga nisbatan Muqaddas bitiklar iborasi ishlatilgan.

15:5 *Butrus* — yunoncha matnda *Kifas*, Butrusning oramiycha ismi (Yuhanno 1:42 ga

qarang).

15:7 *Yoqub* — Isoning shogirdi Yoqub emas, balki Quddusdagi jamoatning yetakchisi va Isoning ukasi Yoqub nazarda tutilgan (Mark 6:3, Havoriylar 15:13, 21:18, Galatiyaliklar 1:18-19 ga qarang).

15:8 *Men rivojlanmay qolgan bir homiladay bo'lsam–da, nihoyat menga ham ko'rindi* — Iso Masih yer yuzida faoliyat olib borganda, uning o'n ikkita tanlab olgan shogirdi bor edi. Ular havoriy deb nom olgan. Ammo Pavlus o'sha dastlabki havoriylardan biri emas edi. U favqulodda havoriylar qatoriga qo'shilgan. U jamoatni quvg'in qilib yurgan paytlarda, kutilmaganda va g'aroyib tarzda imonga kelgan. Havoriylar 9:1-19 ga qarang.

15:27 *...Xudo...Uning oyoqlari ostiga tashlagan* — Zabur 8:7 ga qarang.

15:29 *Ba'zilaringiz o'lganlar uchun suvga cho'mdirilayotgan ekansiz* — bu udum haqida hech qanday ma'lumot saqlanib qolmagan, Yangi Ahdda ham hech narsa yozilmagan. Korinfdagi ba'zi imonlilar suvga cho'mdirilishdan oldin olamdan o'tgan bo'lishlari mumkin (11:30 ga qarang). Balki jamoatdagilar, o'sha marhum imonlilarning o'likdan tirilishiga kafolat beraylik deb, o'lganlarning o'rniga suvga cho'mdirilgandir. Sabab nima bo'lishidan qat'i nazar, Pavlus bu udumni ma'qullamasa ham, bu haqda gapirib o'tgan, chunki uning maqsadi masihiylarning o'likdan tirilishiga urg'u berish edi.

15:32 *...nima uchun Efes shahrida hayotimni xavf ostiga qo'ydim?!* — bu gap Havoriylar 19:23-40 da tasvirlangan voqealarga yoki Pavlus maktubni yozgan vaqtga yaqinroq bo'lgan paytda, Efesda bo'lgan voqealarga ishora qilishi mumkin (16:8-9 ga qarang).

15:32 Ishayo 22:13 ga qarang.

15:45 Ibtido 2:7 ga qarang.

15:54-55 Ishayo 25:8, Xo'sheya 13:14 ga qarang.

16:1 *Xudoyimizning Quddusdagi azizlariga moddiy mablag' to'plash* — Quddusdagi muhtojlikda qolgan masihiylarga yordam berish niyatida Pavlus pul yig'ayotgan edi (Rimliklar 15:25-28, 2 Korinfliklar 8:1-9:5, Galatiyaliklar 2:10 ga qarang). Ularning muhtojliklariga quvg'inlar yoki qurg'oqchilik sabab bo'lgan bo'lishi mumkin (Havoriylar 8:1, 11:28 ga qarang).

16:8 *Hosil bayrami* — Fisih ziyofatidan keyin, 50 kun o'tgach nishonlanadi (Levilar 23:15-16 ga qarang). Ibroniy kalendari bo'yicha bu kun uchinchi oy — Shavon oyining oltinchi kuniga to'g'ri keladi. Hozirgi kalendarga ko'ra, bu oy mayning o'rtasidan boshlanadi.

16:10 *Timo'tiy* — 4:17 ga va o'sha oyatning izohiga qarang.

16:12 *Apollos* — Havoriylar 18:24-19:1 ga qarang.

16:15 *Axaya viloyati* — Rim imperiyasiga qarashli viloyat bo'lib, poytaxti Korinf shahri edi.

16:19 *Akil bilan Priskilla* — Havoriylar 18:2-3, 18-21, 24-26 ga qarang.

16:21 *...shu maktubning yakunini o'z qo'lim bilan yozyapman* — Pavlus bu maktubini kotibga aytib yozdirgan. Maktubning asliyati Pavlusga tegishli ekanini ko'rsatish uchun, Pavlus maktubning oxirgi qismini o'z qo'li bilan yozgan. Qadimgi paytlarda bu odatiy hol edi. 1 Butrus 5:12, Rimliklar 16:22, Galatiyaliklar 6:11, Kolosaliklar 4:18,

2 Salonikaliklar 3:17, Filimo‘n 19–oyatga qarang.

16:22 *Ey Rabbimiz, kelgin!* — yunoncha matnda *Marana fa!*, oramiy tilidan olingan ibora.

16:24 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida quyidagi so‘z oyatga qo‘shimcha qilingan: *omin*.

PAVLUSNING
KORINFLIKLARGA
IKKINCHI MAKTUBI

Kirish

Mazkur maktubni havoriy Pavlus Korinfdagi jamoat bilan keskin munosabatda bo‘lgan bir paytda, ya’ni Korinfdagi ba’zi bir masihiylar Pavlusga har tarafdan hujum qilayotgan vaqtda yozgan. Pavlusning Korinfga borish rejalari o‘zgargani bois, ba’zi Korinfliklar uni ishonchsiz, o‘z so‘zida turmaydigan inson, deb aytishardi. Yana ba’zi birlari Pavlusning havoriyligiga shubha qilishardi. Bunday ig‘volar o‘zlarini havoriy deb atagan soxta ustozlardan kelib chiqqan edi. Pavlus bu maktubni Korinf jamoatining ishonchini va hurmatini qozonish niyatida yozgan.

Maktubning dastlabki qismida (1-7–boblar) Pavlus o‘zining Korinfliklar bilan bo‘lgan munosabati haqida yozib, nima sababdan ularning jamoatidagi ba’zi bir odamlarga qattiq gapirganini tushuntiradi. Mana shu qattiq muomala natijasida munosabatlar qayta tiklanganidan qanchalik xursand ekanini maktub davomida ifoda etadi. Shundan keyin (8-9–boblar) u Korinfdagi jamoatni Quddusdagi muhtoj bo‘lgan birodarlarga saxiylik bilan ehson berishga undaydi. Maktubning oxirgi qismida (10-13–boblar) Pavlus o‘zining haqiqiy havoriy ekanini, soxta havoriylarning aytgan gaplari yolg‘on ekanini dalillar orqali isbotlashga harakat qiladi.

Pavlus Xudoga xizmat qilib, ko‘plab qiyinchiligu azob–uqubatlarga qaramay, odamlarga Xudoning Xushxabarini yetkazishga harakat qiladi. Mazkur maktubda u jamoatning tavba qilgan aksariyat a’zolariga o‘z minnatdorchiligini izhor qiladi, itoatsizlarni esa tartibga chaqirib, o‘zining yetakchi sifatidagi hokimiyatini tan olishlariga da’vat qiladi. Pavlus bir necha bor o‘z shaxsiyati, namunali hayoti, Xudo tomondan tanlanganligini va Masihga xizmat qiladigan havoriy ekanligini ta’kidlaydi.

1–BOB

Duoyi salom

1 Xudoning irodasi bilan Iso Masihning havoriysi bo‘lgan men — Pavlusdan va
birodarimiz Timo‘tiydan* Xudoning Korinf shahridagi jamoatiga hamda Axaya
viloyatidagi* barcha Xudoning azizlariga salom! 2 Otamiz Xudo va Rabbimiz Iso Masih
sizlarga inoyatu tinchlik ato qilsin.

Tasalli manbai — Xudo

3 Rabbimiz Iso Masihning Otasi Xudoga, har turli tasallining manbai bo‘lgan Xudo —
marhamatli Otaga hamdu sanolar bo‘lsin! 4 Har xil azob–uqubatlarga uchraganimizda,
Xudo bizga tasalli beradi. Shunday ekan, biz ham azob chekayotgan insonga tasalli bera
olamiz. Xudo bizga bergan tasalli bilan uni ovuntira olamiz. 5 Masihga o‘xshab biz
qanchalik ko‘p azob cheksak, Xudo bizga Masih orqali shunchalik ko‘p tasalli beradi.
6 Biz azob–uqubatlarga duchor bo‘layotgan ekanmiz, sizlar tasalli va najot topishingiz
uchundir. Biz tasalli topayotgan bo‘lsak, bu ham sizlar tasalli topishingiz uchundir, toki

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

sizlar ham bizga o‘xshab azob–uqubatlarga uchraganingizda bardosh bera oling. 7 Sizlar
nafaqat azob–uqubatlarimizga, balki tasallimizga ham sherik bo‘lishingizga hech
shubhamiz yo‘q.
8 Ey birodarlar, biz shuni istar edikki, sizlar Asiya viloyatidagi biz chekkan
azoblardan bexabar qolmanglar. Biz haddan tashqari, chidab bo‘lmas darajada azob–
uqubat tortdik, hatto tirik qolishdan ham umidimizni uzgan edik. 9 O‘lim muqarrar
ekanligiga amin bo‘lgan edik. Bularning hammasi bizning o‘zimizga emas, balki o‘liklarni
tiriltiradigan Xudoga umid bog‘lashimiz uchun sodir bo‘ldi. 10 Haqiqatan ham Xudo bizni
shunday og‘ir o‘lim tahlikasidan qutqardi va yana qutqaradi ham. Ha, Xudo bizni yana
qutqaradi, deb Undan qattiq umid qilamiz. 11 Sizlar ham ibodatlaringiz orqali bizning
faoliyatimizga sherik bo‘lyapsizlar. Buni ko‘rib, ko‘pchilik biz uchun Xudoga shukr
aytadi, chunki ularning biz uchun qilgan iltijolari natijasida Xudo bizga iltifot ko‘rsatdi.

Pavlusning safar rejalari o‘zgaradi

12 Vijdonimiz guvohlik berib turibdi, biz bu dunyoda, ayniqsa sizlar bilan bo‘lgan
munosabatimizda Xudo ato qilgan soddalik va samimiylik bilan ish tutdik. Biz dunyoviy
donolikka emas, balki Xudoning inoyatiga tayanib harakat qildik. Faxrlanishimizning
sababi ana o‘shadir.
13-14 Sizlar o‘qib, tushuna oladiganlardan boshqa hech narsa yozmaymiz. Sizlar hozir
bizni qisman bo‘lsa–da, tushunasizlar. Umid qilamanki, bir kun kelib, sizlar quyidagini
to‘la anglab olasiz: biz sizlardan qanday faxrlansak, sizlar ham Rabbimiz Iso keladigan
kunda bizdan shunday faxrlana olasizlar.
15 Yuqorida aytib o‘tganlarimning to‘g‘riligiga ishonganim uchun meni ikki marta
ko‘rib, xursand bo‘lib qolinglar degan niyatda sizlarning oldingizga bormoqchi edim.
16 Makedoniyaga borayotganimda sizlarning oldingizga kirib o‘tish, qaytishda ham
sizlarni ko‘rib ketish niyatim bor edi*. Shunday qilib, Yahudiyaga* ketishimda yo‘lda
uchrashi mumkin bo‘lgan ehtiyojlarimni qondirib, kuzatib qo‘yardingizlar.
17 Shunday rejalarim bor edi. O‘sha rejalar amalga oshmasa, yengiltaklik bilan ish
tutgan bo‘lamanmi?! Yoki men reja qilayotgan paytda goh “ha”, goh “yo‘q” deydigan,
betayin odamga o‘xshaymanmi?! 18 Xudo ishonchlidir, shuning uchun sizlarga yetkazgan
xabarimiz ham hech o‘zgarmaydi. 19 Silas*, Timo‘tiy va men sizlarga Xudoning O‘g‘li —
Iso Masih haqida aytganmiz. Iso Masih o‘zgaruvchan emas. U doimo sadoqatlidir. 20 Iso
Masih orqali Xudo O‘z va’dalarini bajaradi, shuning uchun biz ham Iso Masih orqali
Xudoni ulug‘lab, “Omin, iloyim shunday bo‘lsin”, deymiz. 21 Xudoning O‘zi bizni ham,
sizlarni ham Iso Masihga bo‘lgan imonimizda mustahkam qiladi. U bizni O‘zi uchun
tanlab oldi. 22 Bizga O‘z muhrini bosib, kelajakdagi qut–barakalarning kafili sifatida
Muqaddas Ruhni berdi. 23 Xudo shohid, o‘z jonim haqi aytyapman, sizlarni ayaganim
uchun hanuz Korinfga bormadim. 24 Biz sizlarning imoningiz ustidan hukmdormiz,
demoqchi emasman, chunki sizlar imonda mahkam turibsizlar. Xizmat qilishimizdan
maqsad quvonchingizni ko‘paytirishdir.

2–BOB

1 Yana xafagarchilik keltirmaslik uchun sizlarning oldingizga bormaslikka qaror
qildim*. 2 Axir, sizlarni xafa qilsam, menga xursandchilik keltiradiganlarni xafa qilgan
bo‘laman–ku! Unday holda, kim meni xursand qiladi?! 3 Oldingi maktubni*

yozganimning sababi ham shudir, toki sizlarning oldingizga borganimda oramizda xafagarchilik bo‘lmasin, axir, menga katta quvonch keltiradigan sizlar emasmi?! Ishonchim komilki, mening quvonchim sizlarning quvonchingizdir. 4 Sizlarni xafa qilish uchun emas, balki sizlarni qanchalik yaxshi ko‘rishimni ko‘rsatish uchun o‘sha maktubni yozgan edim. Uni chuqur qayg‘u, iztirob bilan, ko‘z yosh to‘kib yozgan edim.

Gunoh qilgan odamni kechirish haqida

5 Meni xafa qilgan odam* faqatgina meni emas, balki qaysidir darajada sizlarning hammangizni xafa qilgan bo‘ladi, ammo bu masalaga keragidan ortiq urg‘u bermaylik. 6 Axir, xafa qilgan odamga ko‘pchilik tomonidan berilgan jazo yetarli. 7 Endi bo‘lsa, uni kechirib, tasalli beringlar, toki u haddan ortiq qayg‘urib, tushkunlikka tushmasin. 8 Sizlardan o‘tinaman, unga bo‘lgan mehr–muhabbatingizni ko‘rsating.

9 Oldingi maktubimni yozishdan yana bir maqsadim shu edi: sizlar har jihatdan itoatkor ekanmisiz yoki yo‘qmi, shuni bilmoqchi edim. 10 Sizlar biror kishini kechirsangiz, men ham uni kechiraman. Birortasi kechirishim kerak bo‘ladigan ayb ish qilgan bo‘lsa, sizlarning manfaatingizni ko‘zlab, Masihning huzurida uni kechiraman. 11 Shaytonga aldanib qolmaylik, axir, uning fitnalaridan bexabar emasmiz–ku!

Pavlus Troas shahrida bezovta bo‘ladi

12 Masih haqidagi Xushxabarni e’lon qilish uchun Troas shahriga borganimda, Egamiz menga yo‘l ochib bergan edi. 13 Ammo ko‘nglim notinch edi, chunki birodarim Titusni* u yerda topa olmadim. Shuning uchun u yerdagilar bilan xayrlashib, Makedoniyaga jo‘nadim.

Masih orqali qozoniladigan g‘alaba

14 Xudoga shukur! Xudo bizga Masihning tantanali yurishida* ishtirok etishni nasib qildi. Atirning hidi qanday taralsa, xuddi shu singari, har yerda va har doim Xudo biz orqali O‘zi haqidagi xabarni tarqatmoqda. 15 Masih haqidagi Xushxabarni yoyar ekanmiz, biz najot topadiganlar orasida ham, halok bo‘ladiganlar orasida ham Xudoga xush keladigan tutatqi nazrining hidiga o‘xshaymiz. 16 Bu hid halok bo‘ladiganlar uchun o‘lim hididir, najot topadiganlar uchun esa hayotbaxsh xushbo‘y hiddir. Bunday yuksak mas’uliyatga Xudo bizni loyiq topdi. 17 Mana, biz ko‘pchilik kabi, Xudoning kalomini bozorga solmaymiz. Aksincha, Xudo tomonidan yuborilgan va Masih xizmatida bo‘lgan kishilardek, Xudoning ko‘zi oldida sof ko‘ngil bilan voizlik qilmoqdamiz.

3–BOB

Yangi ahdning ulug‘ligi

1 Yana o‘zimizni tavsiya qilyapmizmi?! Yoki ba’zilarga kerak bo‘lganday, sizlarga tavsiyanomalar ko‘rsatishimiz kerakmi yoki sizlardan bizga tavsiyanomalar kerakmi?! 2 Axir, yuragimizga* yozilgan tavsiyanomamiz sizlarning o‘zingiz–ku! Bu hammaga ayon, uni hamma o‘qiy oladi. 3 Ochiq ko‘rinib turibdiki, bizning xizmatimiz tufayli yozilgan Masihning maktubi sizlarsiz. Bu maktub siyoh bilan emas, balki barhayot Xudoning Ruhi orqali yozilgan, tosh lavhalarga emas, balki inson qalbining lavhalariga yozilgandir*. 4 Masih tufayli Xudoning oldida bularga ishonchimiz komildir. 5 Axir, biz o‘zimizning kuchimiz bilan biror narsa qila olmaymiz–ku! Hamma qobiliyatimiz bizga Xudo tomonidan berilgan. 6 Xudo bizga yangi ahdning* xizmatkorlari bo‘lish qobiliyatini

berdi. Bu ahd qonunga emas, balki Ruhga asoslanib tuzilgan, chunki qonun o‘limga yetaklaydi, Ruh esa hayot bag‘ishlaydi*.

7 Tosh lavhalarga yozilgan, o‘limga yetaklaydigan eski ahdning qonun–amrlari
shunchalik ulug‘vorlikka ega ediki, Isroil xalqi Musoning o‘sha ulug‘vorlikdan
porlayotgan yuziga* tik qaray olmagan edi. O‘tkinchi ulug‘vorlik shunchalik porloq ekan,
8 Ruh orqali tuzilgan ahd keltiradigan ulug‘vorlik qanday porloq bo‘lishi haqida bir
o‘ylab ko‘ring–chi! 9 O‘lim hukmini keltiradigan eski ahd ulug‘vor ekan, insonlarni
oqlaydigan ahd undan ham ulug‘vor bo‘lmaydimi?! 10 Endi bu ajoyib ulug‘vorlik oldida
o‘sha oldingi ulug‘vorlik arzimas bo‘lib qoldi. 11 O‘tkinchi eski ahd ulug‘vor bo‘lgan ekan,
boqiy bo‘lgan bu yangi ahd naqadar ulug‘vordir!

12 Shunday umidimiz borligi uchun ham jasorat bilan Xushxabarni aytamiz. 13 Biz
Musoga o‘xshamaymiz. Yuzida porlab turgan o‘tkinchi ulug‘vorlikni Isroil xalqi
ko‘rmasligi uchun Muso yuzini yopgan edi*. 14 Isroil xalqining aqli o‘tmas bo‘lib
qolgandi. Bugunga qadar eski ahd o‘qilganda, xuddi bir parda ularning ongini to‘sib
turganga o‘xshaydi. Bu pardani faqatgina Masih olib tashlaydi. 15 Ha, hozir ham
Musoning qonuni o‘qilganda, ularning ongi to‘siqdir. 16 Ammo Egamizga yuz burgan
insonning ongidan to‘siq parda olib tashlanadi. 17 Bu yerda Egamiz deganda, Muqaddas
Ruhni nazarda tutyapman. Egamizning Ruhi qayerda bo‘lsa, o‘sha yerda erkinlik bor.
18 Biz hammamiz ochiq yuz bilan Egamizning ulug‘vorligini* ko‘rib turibmiz*. Biz
o‘zgarib borar ekanmiz, yanada ulug‘vor bo‘lib, Egamizga o‘xshagan bo‘lamiz. Bularning
hammasi Egamizning Ruhi orqali sodir bo‘lmoqda.

4–BOB

Sopol idishlardagi ulug‘ xazinamiz

1 Biz Xudoning marhamati bilan yangi ahdning xizmatkorlari bo‘lganimiz uchun
tushkunlikka tushmaymiz. 2 Aksincha, sirli va uyatli ishlar qilishdan, makr–hiyla
ishlatishdan bosh tortib, Xudoning kalomini buzmay gapiramiz. Haqiqatni ochiq–oydin
aytib, Xudoning huzurida o‘zimizni boshqa odamlarning hukmiga topshiramiz.
3 Xushxabarimiz sirli, to‘siq parda ortida turganday bo‘lib tuyulsa, u halok bo‘ladiganlar
uchun shunday tuyuladi.

4 Bu dunyoning xudosi* imonsizlarning ongini ko‘r qilib qo‘ygan. Shuning uchun ular
Xushxabarning nurini ko‘ra olmaydilar. Bu Xushxabar Xudoning aniq tasviri bo‘lgan
Masihning ulug‘vorligini ko‘rsatadi. 5 Biz o‘zimiz haqimizda emas, Rabbimiz Iso Masih
haqida va’z qilamiz. Isoning yo‘lida sizlarning xizmatkorlaringizmiz. 6 Xudo dunyoni
yaratganda O‘z so‘zi bilan zulmatdan nur yaratgan edi*. Endi U O‘zining nuri bilan
bizning yuraklarimizni ham yoritdi, Iso Masih siymosida porlab turgan O‘z ulug‘vorligini
bizga ko‘rsatdi.

7 Shunday ajoyib xazinani sopol idishlarday bo‘lgan tanalarimizda olib yuribmiz. Shu
orqali oliy qudrat bizga emas, Xudoga mansub ekanligi ko‘rinib turibdi. 8 Biz har
tomonlama jabrlanib ezilamiz, ammo sinmaymiz. Ko‘nglimiz alag‘da bo‘lib, mushkul
ahvolga tushsak ham umidimizni yo‘qotmaymiz. 9 Quvg‘inlarga uchraymiz, lekin Xudo
hech qachon bizni tashlab ketmaydi. Bizni yerga yiqitadilar, ammo yakson qila
olmaydilar.

10 Iso Masih o‘limga ro‘baro‘ bo‘lganidek, biz ham azob–uqubat tortib, o‘lim

tahlikasida yashayapmiz, toki Isoning hayoti bizning tanamizda namoyon bo‘lsin. 11 Iso Masihga tegishli bo‘lganimiz uchun biz doim o‘limga duchor bo‘lyapmiz, toki Isoning hayoti bizning foniy badanimizda namoyon bo‘lsin. 12 Shunday qilib, o‘lim xavfi ostida yashashimiz sizlarga abadiy hayot keltiradi*.

13 Muqaddas bitiklarda: “Ishonganim uchun gapirdim”*, deb yozilgan. Bizda ham shunday imon bor, shuning uchun Xushxabar aytishni davom ettiraveramiz. 14 Bilamizki, Rabbimiz Isoni tiriltirgan Xudo bizni ham Isoga o‘xshatib tiriltiradi va sizlar bilan birga O‘zining huzuriga olib kiradi. 15 Boshimizdan o‘tganlarning hammasi sizlarning manfaatingiz uchun yuz bergan. Xudoning inoyati ko‘pdan–ko‘p odamlar orasida yoyilar ekan, Xudoga yanada ko‘p odamlar shukur aytadi va bundan Unga yanada ko‘proq shon–shuhrat keladi.

16 Shuning uchun ham umidimizni yo‘qotmaymiz. To‘g‘ri, bu foniy badanimiz xazon bo‘lyapti, ammo biz ruhan yangilanib boryapmiz. 17 Bizning o‘tkinchi, yengil azob–uqubatlarimiz bizga haddan tashqari ajoyib va abadiy ulug‘vorlik keltiradi. 18 Axir, biz ko‘rinadigan narsalarga emas, balki ko‘rinmaydigan narsalarga ko‘z tikkanmiz. Ko‘rinadigan narsalar o‘tib ketadi, ko‘rinmaydiganlari esa mangudir!

5–BOB

Samoviy maskanimiz

1 Bilamizki, biz makon qilgan bu tanamiz yer yuzidagi bir kulbadaydir. Bu kulba xarob bo‘lganda, Xudo samoda bizga qo‘l bilan qurilmagan mangu bir uy beradi. 2 Biz samoviy maskanimizga yetishishni kutib, bu yerdagi kulbada, ya’ni tanamizda oh chekib yuribmiz. 3 Xudo bizga samoviy tana beradi, ruhimiz maskansiz qolmaydi. 4 Bu tanamizda ekanmiz, xuddi og‘ir yuk ostida qolgandek oh–nola chekamiz. O‘lishni xohlamaganimiz uchun ohu nola qilamiz. Samoviy tana darhol bu moddiy tananing o‘rnini olishini istaymiz. Axir, o‘shanda mangu tana foniy tananing o‘rnini egallaydi. 5 Xudo bizni mana shu maqsad uchun yaratgan va bunga kafil sifatida bizga Muqaddas Ruhni ato qilgan.

6 Biz bu tanada bo‘lganimizda samoviy maskanimizdan va Egamizdan uzoqda ekanligimizni bilsak ham ishonchimiz barqaror. 7 Axir, biz ko‘zga ko‘rinadigan narsalarga emas, balki imonimizga tayanib hayot kechiramiz. 8 Ha, ishonchimiz barqaror, shuning uchun bu tanalarimizni tashlab, Egamiz bilan birga samoda maskan qilishni afzal ko‘ramiz. 9 Xoh mana shu foniy tanada bo‘laylik, xoh abadiy maskanda bo‘laylik, bizning maqsadimiz Egamizni mamnun qilishdir. 10 Chunki har birimiz Masihning hukm kursisi oldida hozir bo‘lishimiz kerak. Shunda har birimiz qilgan yaxshi yoki yomon ishlarimizga yarasha mukofot yoki jazo olamiz.

Xudo bilan yarashish

11 Biz Xudodan qo‘rqish nimaligini bilganimiz uchun boshqalarni ham Xushxabarga ishonishga da’vat qilamiz. Biz qanday odam ekanligimiz Xudoga ayondir, umid qilamanki, sizlar ham bizning qandayligimizni ochiq–oydin bilasizlar. 12 Biz o‘zimizga o‘zimiz tavsiya bermayapmiz. Aksincha, biz bilan faxrlanish imkonini sizlarga beryapmiz. Shunda qalbidagi o‘y–xayolu fazilatlar bilan emas, balki tashqi qiyofasi bilan maqtanadigan insonlarga sizlar o‘rinli javob bera olasizlar.

13 Agar biz boshqalarga aqldan ozganday ko‘rinsak, bu Xudoga shuhrat keltirish

uchundir. Aqlimiz joyida bo‘lsa, bu sizlarning manfaatingiz uchundir. 14 Axir, Masihning
bizga bo‘lgan muhabbati bizni rag‘batlantiradi. Bir Odam hamma uchun o‘lgan bo‘lsa,
demak, biz hammamiz o‘lganmiz degan xulosaga keldik. 15 Ha, Masih hamma uchun o‘ldi,
toki yashayotganlar endi o‘zlari uchun emas, balki ular uchun o‘lgan va tirilgan Masih
uchun yashasinlar.
16 Shu sababdan endi biz hech kimga insoniy nuqtayi nazardan baho bermaymiz. Bir
vaqtlar* Masihga ham insoniy nuqtayi nazardan baho bergan edik, endi esa unday
qilmaymiz. 17 Binobarin, kim Masihga tegishli bo‘lsa, u yangi ijoddir. Eski hayot o‘tib
ketdi, yangisi esa boshlandi.
18 Bularning hammasi Xudodandir. U Masih orqali bizni O‘zi bilan yarashtirdi*
hamda boshqalarga Xudo bilan yarashish yo‘lini ko‘rsatish xizmatini bizga berdi. 19 Ha,
Xudo insonlarni gunohlari uchun jazolamadi, aksincha, Masih orqali dunyoni O‘zi bilan
yarashtirdi. Yarashish haqidagi bu xabarni yetkazishni esa bizga topshirdi. 20 Shunday
qilib, biz Masihning elchilarimiz, Xudo biz orqali insonlarga murojaat etyapti. Masih
nomidan yolvoryapmiz: sizlar ham Xudo bilan yarashinglar. 21 Axir, Xudo bizni Masih
orqali oqlash uchun begunoh Masihni gunohkorni jazolaganday, jazoladi*.

6–BOB

1 Xudoning hamkorlari sifatida sizlarga yolvoramiz: Xudoning inoyati hayotingizda
samarasiz bo‘lmasin. 2 Xudo shunday deb aytyapti:

> “Muruvvat payti kelganda,
> Men senga quloq solaman.
> Najot kuni kelganda,
> Men senga yordam beraman.”*

O‘sha muruvvat payti hozirgi paytdir, o‘sha najot kuni bugungi kundir.

Xudoning haqiqiy xizmatkorlari

3 Xizmatimizda birorta ayb topilmasin deb, biz hech kimni zarracha ranjitmaymiz.
4 Xudoning haqiqiy xizmatkorlari ekanligimizni o‘z harakatlarimiz bilan isbotlayapmiz.
Har xil qiyinchiliklaru kulfatlar boshimizga tushganda, tang ahvolda qolganimizda sabr–
toqat ko‘rsatyapmiz. 5 Bizni urganlarida, qamoqqa tashlaganlarida, g‘alayonlarda
qolganimizda, mashaqqat bilan mehnat qilganimizda, uyqusizlikda va och qolganimizda,
hammasiga bardosh berdik. 6 Poklik, donolik, sabr–toqat bilan yashab, mehribon bo‘lib,
Muqaddas Ruh bizda maskan qilganini ko‘rsatib, samimiy muhabbatimiz bilan Xudoning
xizmatkorlari ekanimizni isbotladik. 7 Biz haqiqatni e’lon qilyapmiz, Xudoning qudratiga
tayanib xizmat qilyapmiz. Ham o‘ng qo‘limizda, ham chap qo‘limizda solihlik
qurollarini* tutib yuribmiz. 8 Sharafga erishamizmi yoki isnodga qolamizmi, boshqalar
bizni haqorat qiladimi yoki maqtaydimi, har qanday vaziyatda Xudoning xizmatkorlari
ekanligimizni ko‘rsatyapmiz. Bizni yolg‘onchi, deb aytishadi, ammo biz haqiqatgo‘ymiz.
9 Mashhur emasmiz, ammo bizni bilishadi. Bizni o‘lgan deb hisoblaydilar, ammo mana,
tirikmiz. Bizni jazoga tortadilar, ammo o‘limga mahkum qilmaydilar. 10 Bizni xafa
qilyaptilar, ammo doimo xursandmiz. O‘zimiz kambag‘almiz–u, ko‘p kishilarni
boyitamiz. Hech narsamiz yo‘g‘–u, ammo hamma narsaga egamiz.

11 Ey Korinfliklar! Sizlarga bemalol, ochiq–oydin gapirdik. Sizlarga bag‘rimizni keng
ochdik. 12 Biz sizlardan mehr–muhabbatimizni ayamadik, sizlar esa o‘z mehringizni
bizdan qizg‘anasiz. 13 Sizlarga o‘z farzandlarimga gapirayotganday gapiryapman. Biz
sizlarga qanday muomala qilsak, sizlar ham bizga shunday muomala qiling: bizga
bag‘ringizni keng oching.

Barhayot Xudoning ma’badi

14 Imonsizlar bilan sherik bo‘lmanglar*. Solihlik bilan qabihlikning orasida qanday
aloqa bor?! Nur bilan zulmat orasida qanday umumiylik bo‘lishi mumkin?! 15 Masih bilan
shayton* orasida qanday ittifoq bo‘lishi mumkin?! Imonli bilan imonsizning orasida
qanday sheriklik bo‘lishi mumkin?! 16 Xudoning ma’badi bilan butlar orasida qanday
umumiylik bor?! Axir, biz barhayot Xudoning ma’badimiz–ku! Xudo shunday deb
aytgan:

> “Men ularning orasida yashayman,
> Ularning orasida yuraman.
> Men ularning Xudosi bo‘laman,
> Ular esa Mening xalqim bo‘ladi.”*

17 Binobarin, Egamiz shunday degan:

> “Xalqlar orasidan chiqinglar,
> Ulardan ajralib chiqinglar,
> Haromga qo‘l tekkizmang,
> Shunda Men sizlarni qabul qilaman.”*

18 Qodir Xudo — Egamiz yana shunday deb aytgan:

> “Men sizlarga ota bo‘laman,
> Sizlar esa Menga o‘g‘il–qizlar bo‘lasizlar.”*

7–BOB

1 Ey azizlarim, Xudo bizga shunday ajoyib va’dalar bergan ekan, badanimizni va
ruhimizni bulg‘ovchi har qanday narsadan o‘zimizni poklaylik. Xudodan qo‘rqib yashab,
butunlay Xudo uchun ajratilgan ekanligimizni ko‘rsataylik.

2 Bizga bo‘lgan mehringizni ko‘rsating*. Biz hech kimga ozor bermadik, hech kimga
ziyon yetkazmadik, hech qachon o‘zimizning manfaatimizni ko‘zlab, boshqalardan
foydalanmadik. 3 Bularni sizga ta’na qilib aytmayapman. Axir, oldin aytganimdek,
o‘lamizmi, yashaymizmi, sizlar bizning dilimizdasiz. 4 Sizlarga jasorat bilan gapira
olaman, sizlar bilan juda faxrlanaman. Azob–uqubatlarimiz qanchalik ko‘p bo‘lmasin,
dilim tasallidan to‘lib–toshadi, behad quvonaman.

Pavlusning shodligi

5 Biz hatto Makedoniyaga borganimizdan keyin ham hech xotirjam bo‘la olmadik,
aksincha, har tomondan g‘am–g‘ussaga tushdik: sirtdan hujumlar bo‘ldi, ko‘nglimizda
esa qo‘rquvlar bor edi. 6 Tushkunlikka tushganlarga tasalli beruvchi Xudo Titusni*
yonimizga yuborib, bizga tasalli berdi. 7 Biz faqatgina uning kelganidan emas, balki

uning sizlardan olgan tasallisi haqida eshitib ham ancha dalda topdik. Sizlar meni qattiq sog‘inayotganingiz, men uchun qayg‘urib, tarafimni olganingiz haqida xabar olib kelganidan juda sevindim.

8 Shu sababdan maktubim* bilan sizlarni xafa qilgan bo‘lsam ham, uni yozganimdan
afsuslanmayman. To‘g‘ri, bu maktub sizlarni bir oz muddatga bo‘lsa–da, xafa qilganini
bilib afsuslandim. 9 Mana endi sevinyapman. Sizlar xafa bo‘lganingizdan emas, balki bu
xafagarchilik sizlarni tavbaga keltirgani uchun sevinyapman. Xudo bu xafagarchilikni
yaxshilik uchun ishlatdi, shuning uchun bizdan hech qanday ziyon ko‘rmadingiz, deb
ayta olaman. 10 Axir, Xudo yaxshilikka ishlatadigan xafagarchilik tavbaga olib keladi,
tavba esa najotga yetaklaydi va hech qanday armonu afsusga sabab bo‘lmaydi. Bu dunyo
keltiradigan xafagarchilik esa o‘limga olib boradi. 11 Mana qarang, Xudo yaxshilikka
ishlatadigan xafagarchilik sizlarning hayotingizda qanday samara keltirdi. Endi sizlar
menga qarshi emasligingiz ko‘rinib turibdi. O‘sha aybdor bo‘lgan insondan
g‘azablanyapsiz, unga hamtovoq bo‘lib qolishdan qo‘rqyapsiz. Meni ko‘rishga intizorsiz.
Aybdorni jazolashga tayyorsiz. Mana shularning hammasi sizlarning bu borada pok
ekanligingizni isbotlamoqda. 12 Men bu maktubni ayb ish qilgan inson* haqi yoki ayb ish
tufayli ranjigan inson haqi yozmadim. Asosiy maqsad, Xudoning oldida sizlarning menga
qanchalik bag‘ishlangan ekanligingizni o‘zlaringizga ko‘rsatish edi. 13 Shuning uchun biz
ancha tasalli topdik.

Bundan tashqari, Titusning xursandchiligi bizni yanada quvontirdi, chunki sizlar
uning ruhini ko‘taribsizlar. 14 Men unga sizlarni maqtagan edim, sizlar meni uyatga
qoldirmabsizlar. Sizlarga aytganlarimiz to‘g‘ri bo‘lgani kabi, maqtanib Titusga
aytganlarim ham to‘g‘ri ekanligi isbotlandi. 15 Titus sizlarning itoatkorligingizni, uni
hurmat–ehtirom bilan kutib olganingizni eslar ekan, uning sizlarga bo‘lgan muhabbati
yanada oshib bormoqda. 16 Sizlarga to‘liq ishona olganimdan juda xursandman.

8–BOB

Quddusdagi jamoat uchun hadya

1 Endi birodarlar, Xudoning Makedoniyadagi jamoatlarga* ko‘rsatgan inoyati haqida
sizlarga aytmoqchimiz. 2 Ular og‘ir kulfatlarga yo‘liqib, sinalgan bo‘lsalar–da, jo‘shqin bir
sevinchga to‘lib–toshdilar, o‘ta kambag‘al bo‘lsalar–da, yuraklari saxiylikka boy
ekanligini ko‘rsatdilar. 3 Ular o‘z xohishlari bilan, qo‘llaridan kelgancha, hatto
imkonlaridan ortiq xayr–ehson berganlariga men shohidman. 4 Ular, Xudoning
Quddusdagi azizlariga* yordam berishda ishtirok etaylik, deb bizdan o‘tinib so‘radilar.
5 Hatto umid qilganimizdan ham ziyodrog‘ini qildilar. Xudoning irodasi bo‘yicha ular
o‘zlarini avval Rabbimiz Isoga, keyin esa bizga bag‘ishladilar.

6 Titus sizlarning orangizda boshlagan xayrli ishini bitirsin deb, uni rag‘batlantirdik.
7 Sizlar imon va ilm–ma’rifatga boy, gapga chechan, notiqlikda mohirsizlar, g‘ayratu
tirishqoqlikda hech kimdan qolishmaysizlar, biz tufayli qalbingizda uyg‘ongan mehr–
muhabbatingiz* cheksizdir. Shunday ekan, bu xayrli ish orqali saxiyligingizning
cheksizligini ham ko‘rsating. 8 Men buni sizlarga buyruq tariqasida emas, balki mehr–
muhabbatingizning samimiyligini isbot qilishingiz uchun aytyapman. Shuning uchun
boshqalarning g‘ayratiyu tirishqoqligiga e’tiboringizni qaratyapman. 9 Axir, o‘zingiz
Rabbimiz Iso Masihning ko‘rsatgan inoyatini bilasizlar–ku, U boy bo‘lsa ham, sizlarni

boy qilish uchun kambag‘al bo‘ldi*.

10-11 Yuqorida aytib o‘tilgan xayr–ehsonlar haqida maslahatim quyidagichadir: o‘tgan yili nafaqat o‘sha xayrli ishni qilishni boshladingiz, balki bu ishga qo‘shilish haqida o‘zingiz xohish bildirgan edingiz. Endi o‘z manfaatingiz uchun xayrli ishingizni oxiriga yetkazinglar, qanday niyat bilan boshlagan bo‘lsangiz, shunday qilib, qo‘lingizdan kelganicha bitirishga harakat qilinglar. 12 Agar inson hadya berishni xohlasa, undan yo‘q bo‘lgan narsa talab qilinmaydi, balki o‘zida bor narsasini bergani qabul qilinadi.

13 Boshqalarning hayoti yengillashib, sizlar esa og‘ir ahvolda qolishingizni istamaymiz. Hammaning orasida tenglik bo‘lsin. 14 Hozirgi paytda sizlardagi baraka ulardagi yetishmovchiliklarni to‘ldirsin, payti kelganda ulardagi baraka sizlardagi yetishmovchiliklarni to‘ldiradi, shunday qilib tenglik bo‘ladi. 15 Muqaddas bitiklarda quyidagicha yozilgan: “Ko‘p yig‘ib olganlardan hech narsa ortib qolmadi, oz yig‘ib olganlar uchun esa yetarli bo‘ldi.”*

Titus va uning yo‘ldoshlari

16 Xudoga shukur! Men sizlarga qanday g‘amxo‘r bo‘lsam, Xudo sizlarga nisbatan shunday g‘amxo‘rlikni Titusning diliga jo qildi. 17 Axir, Titusdan sizlarning oldingizga borishni iltimos qilganimda, u nafaqat rozi bo‘ldi, balki xohish va ishtiyoq bilan bordi. 18 U bilan birga barcha jamoatlarda Xushxabarning voizi deb maqtalgan birodarni ham yubordik. 19 Xayrli ishda yordam qilib, ular bilan birga Quddusga borsin deb, jamoatlar uni bizga yo‘ldosh qilib saylagan edilar*. Biz bu ishni Egamizni ulug‘lash uchun hamda o‘zimizning ishtiyoqimizni ko‘rsatish uchun qilyapmiz. 20 Saxiylik bilan berilgan xayr–ehsonlarni atalgan odamlarga yetkazishda hech qanday ayb ish qilmayapmiz. 21 Biz nafaqat Egamizning nazarida, balki insonlar oldida ham to‘g‘ri ish qilishga harakat qilyapmiz.

22 Titus va va’zxon birodarga qo‘shib, yana bir birodarni ham yuboryapmiz. U biz tomondan ko‘p sinalgan va har jihatdan g‘ayratli ekanligini ko‘rsatgan. Sizlarga nisbatan ishonchi komil bo‘lgani uchun uning sizlarga xizmat qilish ishtiyoqi yanada ko‘paygan. 23 Agar Titus haqida kimdir so‘rasa, u mening hamrohim va sizlar uchun xizmat qilayotgan hamkorim ekanligini aytinglar. Haligi ikki birodar esa jamoatlar tomonidan yuborilgan va ular Masihga ulug‘vorlik keltiradilar. 24 Shunday qilib, jamoatlar oldida o‘sha birodarlarga bo‘lgan mehr–muhabbatingizni ko‘rsatib, ularga sizlarni maqtaganimiz bekor emasligini isbotlang.

9–BOB

Saxiy bo‘lishga da’vat

1 Sizlarga Xudoning Quddusdagi azizlari uchun beriladigan yordam* haqida yozishimga hech hojat yo‘q. 2 Axir, bilaman–ku, sizlar yordam berishga tayyorsizlar, shuning uchun ham “Axaya* hududidagi imonlilar o‘tgan yildan beri tayyor”, deb Makedoniyadagi* imonlilarga sizlarni maqtab yuribman. Sizlarning saxiylik bilan berayotgan xayr–ehsonlaringiz ularni ham saxiylikka undadi. 3 Endi o‘sha maqtanganlarim bekor emasligini ko‘rsatish uchun hamda men aytganimday tayyor bo‘lib turishingiz uchun birodarlarni sizlarning oldingizga yuboryapman*. 4 Yana Makedoniyaliklardan ba’zilari men bilan birga borsa–yu, sizlar tayyor bo‘lmasangiz, sizlarga qattiq ishongan biz uyatga qolamiz, sizlar esa bizdan battar uyalib qolasiz. 5 Shu

sababdan va’da qilgan hadyangizni oldindan tayyorlab qo‘yinglar deb, o‘zim bormasimdan avval sizlarning oldingizga birodarlarni yuborishni lozim ko‘rdim. Shunda sizlarning hadyangiz norozilik bilan emas, sidqidildan berilgan hadya bo‘ladi.

6 Shuni unutmangki, oz ekkan oz o‘rib oladi, mo‘l ekkan esa mo‘l o‘rib oladi. 7 Har kim norozi bo‘lib yoki majburiyat bilan emas, balki ko‘nglida niyat etganini bersin. Axir, Xudo mamnuniyat bilan beradigan insonni yaxshi ko‘radi. 8 Xudo sizlarning hayotingizni har jihatdan inoyatga to‘ldirib–toshtirishga qodirdir. Shunda har doim, har jihatdan, hamma ehtiyojingiz qondiriladi va sizlar yanada ko‘proq har xil xayrli ishlar qilasizlar.
9 Muqaddas bitiklarda quyidagicha yozilgan:

> “Boyligini muhtojlarga saxiylik ila taqsimlaydi,
> Uning solihligi to abad davom etadi.”*

10 Dehqonga ekish uchun urug‘, hammaga yeyish uchun non beradigan Xudo sizlarning ekadigan urug‘ingizni mo‘l qiladi, solihligingizdan keladigan hosilni ham ko‘paytiradi.
11 Har doim saxiy bo‘lishingiz uchun Xudo sizni har jihatdan boy qiladi. Shunday qilib, biz sizlarning hadyalaringizni muhtojlarga yetkazganimizda, ular Xudoga ko‘p shukronalar aytadi.

12 Mana shu hadyangiz bilan ko‘rsatgan yordamingiz nafaqat Xudoning Quddusdagi azizlarining ehtiyojlarini qondiradi, balki ko‘pchilikning Xudoga ko‘pdan–ko‘p shukrona aytishiga sabab bo‘ladi. 13 Ularga hamda boshqalarga ko‘rsatgan saxiyligingiz va Masihning Xushxabariga ishonib, itoatkorona yashayotganingiz tufayli ko‘pchilik Xudoni ulug‘laydi. Axir, hadyangiz bularning dalolati–ku! 14 Xudoning sizlarga ko‘rsatgan cheksiz inoyati sababli ular mehr–muhabbat bilan sizlar uchun ibodat qiladilar.
15 Ta’rifiga til ojiz bo‘lgan ajoyib hadyasi uchun Xudoga shukur!

10–BOB

Pavlusga Xudo bergan hokimiyat

1 Masihning O‘zi ko‘rsatgan muloyimlik va mehribonlik bilan sizlardan iltijo qilaman. Ba’zilar men haqimda: “Pavlus shaxsan oramizda bo‘lganda mo‘min–u, uzoqda bo‘lganda esa juda jasur ekan–a!” deb aytayotgan ekan. 2 Ba’zilar meni bo‘shang odam, deb aytayotgan ekan. Men albatta bunday odamlarga qattiq muomala qilaman. Sizlardan o‘tinaman, sizlarga qattiq gapirishga meni majbur qilmanglar. 3 Biz inson bo‘lib, bu dunyoda yashasak ham, bashariy kuch bilan jang qilmaymiz. 4 Bizning qurol–aslahalarimiz bashariy manfaat uchun emas, balki ilohiy manfaat uchun ishlatiladi. Bizning qurol–aslahalarimiz bu dunyoning qurol–aslahalariday emas. Xudoning qudrati bilan bu qurol–aslahalarimiz qal’aday mustahkam bo‘lgan insoniy o‘y–xayollarni hamda quruq safsatalarni yo‘q qilishga qodir. 5 Xudoni tanib–bilishga to‘sqinlik qilayotgan takabburona dunyoqarashga biz barham beramiz. Har qanday o‘y–xayolni Masihga bo‘ysundirib, asir qilamiz. 6 Shunday qilib, o‘zlaringiz ham to‘la bo‘ysunganingizdan keyin, biz birgalikda har xil itoatsizlikni jazolashga tayyor bo‘lamiz.

7 Sizlar mening havoriy ekanligimni nahotki bilmasangizlar?!* Agar birortasi ishonch bilan: “Men Masihga tegishliman”, desa, shuni o‘ylab ko‘rsin: u tegishli bo‘lgan Masihga biz ham tegishlimiz! 8 Egamiz tomonidan berilgan hokimiyat haqida juda ko‘p

maqtansam ham, bundan hech xijolat bo‘lmayman. Axir, bu hokimiyat menga sizlarning imoningizni vayron qilish uchun emas, balki mustahkamlash uchun berilgan.

9-11 Darvoqe, ba’zilar: “U maktublarida talabchan va kuchli, lekin shaxsan biz bilan bo‘lganda esa zaif, so‘zlari ham ta’sirsiz”, deb aytayotgan ekan. Bunday deb aytayotganlar shuni bilib qo‘ysinlarki, men faqatgina maktublarimda ogohlantirib qolmayapman. Men maktublarimda qanday inson ekanligimni ko‘rsatgan bo‘lsam, huzuringizda bo‘lganimda ham shunday inson ekanligimni o‘z harakatlarim bilan isbotlayman.

Maqtanishu maqtanmaslik haqida

12 O‘zlariga yuqori baho beradigan odamlarning qatoriga biz o‘zimizni qo‘shmaymiz, hatto ular bilan solishtirmaymiz. Ular o‘zlarini o‘zlari bilan o‘lchab, o‘zlarini o‘zlariga qiyos qiladilar. Bu qanday ahmoqlik! 13 Biz haddan tashqari maqtanmaymiz. Xudo bizga yuklagan mas’uliyat va vazifa doirasidan chiqib ketmaymiz. Sizlar ham bizning mas’uliyatimiz doirasiga kirasizlar. 14 Agar biz sizlarga mas’ul bo‘lmaganimizda edi, sizlarga qilgan muomalamizda haddimizdan oshgan bo‘lardik. Ammo o‘zlaringiz bilasiz–ku, birinchi bo‘lib sizlarga Masihning Xushxabarini keltirgan bizmiz.

15 Biz haddimizdan oshib, boshqalarning qilgan mehnati bilan maqtanmaymiz. Umid qilamizki, imoningiz oshib boraveradi, shunda sizlarning yordamingiz bilan xizmatimiz yanada ko‘payadi. 16 Shunday qilib, boshqalarning tayyor ishlari bilan maqtanmay, sizlardan uzoqroq bo‘lgan joylarga ham Xushxabarni yetkazaylik. 17 Muqaddas bitiklarda o‘rgatilganday, kim maqtanmoqchi bo‘lsa, Egamizning qilgan ishlari bilan maqtansin!* 18 O‘zini o‘zi maqtagan odam emas, balki Egamizning maqtoviga sazovor bo‘lgan odamgina Unga maqbul bo‘ladi.

11–BOB

Pavlus va soxta havoriylar

1 Qaniydi, sizlar mening ozgina ahmoqlik qilishimga chidasangiz! Ilojingiz qancha? Axir, qarang, sizlar menga chidab kelyapsizlar–ku! 2 Men sizlarni Xudoning rashki bilan qizg‘anyapman, chunki go‘yo bir pok bokira qizni yagona erga nikohlaganday, sizlarni Masihga taqdim etmoqchiman. 3 Ammo Momo Havo ilonning yolg‘on–yashiqlariga ishonib, yo‘ldan ozgani kabi*, sizlarning ham o‘y–xayollaringiz buzilmasin. Men sizlardan xavotirdaman, sizlar o‘zingizni chin yurakdan, samimiylik bilan Masihga bag‘ishlaganingizni unutib qo‘yasiz, deb qo‘rqaman. 4 Axir, birov kelib, biz va’z qilgan Isodan boshqa bir Iso haqida va’z qilsa yoki sizlar olgan Ruhdan boshqa bir ruh haqida va sizlar qabul qilgan Xushxabardan boshqa bir xushxabarni aytsa, bunday odamlarni xush qarshilab o‘tiribsiz. 5 Sizlar “oliy havoriylar” deb bilgan o‘sha ustozlaringizdan men hech bir narsada qolishmayman, deb o‘ylayman. 6 Men mohir va’zxon bo‘lmasam–da, ilm–ma’rifatda hech kamchiligim yo‘q. Buni sizlarga har jihatdan ochiq–oydin ko‘rsatdim.

7 Men sizlarni yuksaltirish uchun o‘zimni past olib, Xudoning Xushxabarini sizlarga tekinga aytib, gunoh qildimmi?! 8 Sizlarga xizmat qilish uchun boshqa jamoatlardan mablag‘ oldim. Bu bilan xuddi ulardan o‘g‘irlaganday bo‘ldim. Orangizda bo‘lib, muhtojlikda qolganimda ham birovga ortiqcha yuk bo‘lmadim, 9 chunki Makedoniyadan kelgan birodarlar* barcha ehtiyojlarimni qondirdilar. Men biron narsada sizlarga

og‘irligimni tushirmaslikka harakat qildim va shunday qilishda davom etaveraman.
10 Qalbimda Masihning haqiqati borligiga shubha yo‘q, shu bois Axaya hududi bo‘ylab
yoyilayotgan bu obro‘–e’tiborimni hech kim to‘ka olmasligiga aminman. 11 Nima uchun
sizlardan yordam so‘ramadim? Bu sizlarni yomon ko‘rishimdan darak beradimi? Mana,
Xudoga ayon, sizlarni yaxshi ko‘raman.

Men qilayotgan ishimni davom ettiraveraman. 12 Ana shunda, bizning ishlarimiz
Pavlusning xizmati bilan baravar, deb maqtanayotganlarning gaplariga hech bir asos
bo‘lmaydi. 13 Axir, ular o‘zlarini Masihning havoriylari qilib ko‘rsatayotgan soxta
havoriylar va hiylakor xizmatchilar–ku! 14 Buning hayron qoladigan joyi yo‘q, chunki
hatto shayton ham o‘zini nurli farishta qilib ko‘rsatadi. 15 Shuning uchun shaytonning
xizmatkorlari o‘zlarini solihlik xizmatchilari qilib ko‘rsatar ekanlar, buning hech
ajablanarli joyi yo‘q. Oqibatda ular qilmishlariga yarasha jazo oladilar.

Pavlusning chekkan zahmatlari

16 Yana aytaman, biror kishi meni ahmoq ekan, deb aytmasin. Bordi–yu, sizlar
shunday deb o‘ylasangiz, unda ahmoqlarga qanday munosabatda bo‘lsangiz, menga ham
shunday munosabatda bo‘linglar, shunda men ham ozgina maqtanib olaman. 17 Men
balandparvozlik bilan gapirib, ahmoqlarday maqtanyapman. Bu Rabbimiz Isoga
munosib emas. 18 Modomiki, ko‘pchilik insoniy mavqei bilan maqtanayotgan ekan,
mayli, men ham maqtanay. 19 Axir, sizlar shunchalik donosizki, aqlsizlarga jon deb toqat
qilasizlar. 20 Haqiqat shuki, birortasi sizlarni o‘ziga asir qilsa ham, haqingizni yesa ham,
talon–taroj qilsa ham, o‘zini katta tutsa ham, yuzingizga tarsaki solsa ham, ularning
hammasiga toqat qilib kelyapsiz.

21 Biz sizlarga o‘shanday muomala qilmadik. Shuning uchun biz sizning nazaringizda
ojiz bo‘lib ko‘ringandirmiz–da?! Bundan uyalishimiz kerakmi?! Xo‘p, ahmoqlarcha
gapirayotgan ekanman, odamlar nima bilan maqtanishga jur’at qilayotgan bo‘lsa, men
ham o‘shalar bilan maqtanishga jur’at qilaman. 22 Ular ibroniymi? Men ham ibroniyman!
Ular Isroil xalqiga tegishlimi? Men ham Isroil xalqidanman! Ular Ibrohim naslidanmi?
Men ham Ibrohim naslidanman! 23 Ular Masihning xizmatkorlarimi? Men befarosatlik
qilib aytyapmanki, ularning hammasidan ustunman. Zahmat desangiz, men ulardan
ko‘proq zahmat chekdim. Zindon desangiz, ulardan ko‘proq zindonda yotdim. Zarba
desangiz, men haddan tashqari ko‘p zarba yedim, hatto ko‘p marta o‘limga ro‘baro‘
bo‘ldim. 24 Yahudiylardan besh marta bir kam qirqtadan* kaltak yedim. 25 Rim
amaldorlari meni uch marta kaltaklatdilar. Bir marta toshbo‘ron bo‘ldim*, uch marta
kemada halokatga uchradim, bir kechayu kunduzni dengiz bag‘rida o‘tkazdim. 26 Ko‘p
marta uzoq safarlarda bo‘ldim. Daryolarda tahlikada qoldim. Qaroqchilar hujumidan
hayotim tahlikada qoldi. O‘z qondoshlarimu g‘ayriyahudiylar tufayli tahlika ostida
qoldim. Shaharda tahlika, sahroda tahlika, dengizda tahlika, soxta birodarlar orasida
tahlika! 27 Men ancha mehnat va mashaqqat ostida, ko‘p marta uyqusizlikda, ochlik va
tashnalikda qoldim. Ba’zan yeyishga nonim, sovuqda kiyishga kiyimim bo‘lmadi.

28 Yana bulardan va qolgan boshqa narsalardan tashqari, har kuni barcha jamoatlar
haqida qayg‘urish ham mening zimmamda. 29 Ayting–chi, zaif odam bormi? Men undan
ham zaifman. Birorta odam vasvasaga tushib, yo‘ldan ozganmi? Men vasvasa dastidan
ado bo‘ldim–ku! 30 Maqtanish kerak bo‘lsa, ojizligim bilan maqtanaman. 31 Rabbimiz
Isoning Otasi — abadiy hamdu sanoga loyiq Xudo biladiki, men yolg‘on gapirmayapman.

32 Damashqda bo‘lganimda, shoh Xaretasga* qarashli viloyat hokimi meni tutib olish uchun Damashq shahrini nazorat ostiga olgan edi. Ammo meni savat ichida shahar devoridagi derazadan tushirishdi* va men uning qo‘lidan qochib qutuldim.

12–BOB

Pavlusga kelgan vahiylar

1 Maqtanishning hech foydasi yo‘q, ammo baribir maqtanishim kerak. Endi Egamiz ayon qiladigan vahiylarga kelsak, 2 Masihga qarashli bir odamni bilaman*. O‘n to‘rt yil oldin o‘sha odam yerdan arshi a’loga* ko‘tarildi. Badanda edimi yoki badandan tashqarida edimi, bilmayman, Xudo biladi. 3 Shuni bilamanki, badandami yoki badandan tashqaridami, menga emas, Xudoga ayon, o‘sha odam 4 jannatga ko‘tarilganda insonning tili ta’riflashga ojiz bo‘lgan so‘zlarni eshitdi. Bunday so‘zlarni inson tilga olmasligi kerak. 5 Bunday odam bilan maqtansam bo‘ladi. Lekin o‘zim haqimda bo‘lsa, ojizligimdan boshqa hech narsa bilan maqtanmayman. 6-7 Agarda o‘zim haqimda maqtanadigan bo‘lsam ham, ahmoqona ish qilgan bo‘lmayman, chunki haqiqatni gapirgan bo‘laman. Odamlar o‘sha haddan tashqari ajoyib vahiylarga qarab menga baho bermasinlar. Ammo qilayotgan ishlarimga qarab yoki mendan eshitganlari bo‘yicha menga baho bersinlar, undan ortiq meni yuqori ko‘tarmasinlar deb, o‘zimni tutib turibman.

Shuning uchun meni kibrlanib ketmasin deb, badanimga bir nish, meni niqtalaydigan shaytonning elchisi berildi. 8 Buni mendan olib tashlagin, deb uch marta Rabbimiz Isoga yolvordim. 9 Lekin U menga shunday dedi: “Mening inoyatim doim senga yetarli bo‘ladi, chunki Mening qudratim sening ojizligingda to‘liq namoyon bo‘ladi.” Shunday qilib, Masihning qudrati men orqali ayon bo‘lishi uchun ojizligim bilan maqtanishni afzal ko‘raman. 10 Shu sababdan Masih haqi ojizlikni, xo‘rliklarni, muhtojliklarni, quvg‘in va qiyinchiliklarni shodlik bilan qabul qilaman. Ayniqsa, ojiz bo‘lgan paytimda Masihning qudrati bilan kuchli bo‘laman.

Pavlus Korinfdagi imonlilar uchun qayg‘uradi

11 Men o‘zimni aqlsiz insonday tutdim. Ammo meni bunga o‘zlaringiz majbur etdingiz–ku, chunki sizlar meni maqtashingiz kerak edi. Mening o‘zim hech bir ahamiyatga ega bo‘lmasam–da, o‘sha “oliy havoriylardan” hech bir kam joyim yo‘q. 12 Orangizda bo‘lganimda har xil qiyinchiliklarga bardosh berganim, mo‘jizalaru alomatlar, qudratli ishlar qilganim haqiqiy havoriy ekanligimdan dalolat beradi. 13 Xo‘sh, qachon men sizlarga, boshqa jamoatlarga qaraganda yomonroq muomalada bo‘ldim? To‘g‘ri, sizlarga og‘irligimni tushirmadim. Agar bu sizlarga adolatsizlik bo‘lib tuyulsa, meni kechiringlar.

14 Mana, sizlarning oldingizga uchinchi marta borishga tayyorman*. Sizlarga yuk bo‘lmayman, chunki menga sizlarning narsangiz emas, o‘zingiz keraksiz. Zotan, farzandlar ota–onalari uchun emas, balki ota–onalar farzandlari uchun mol–mulk yig‘ishi lozim. 15 Shodlik bilan bor mol–mulkimni, hatto o‘z jonimni ham sizlar uchun beraman. Men sizlarni shunchalik yaxshi ko‘rar ekanman, sizlarning meni kamroq yaxshi ko‘rishingiz to‘g‘ri ishmi?!

16 Xo‘p, mayli, men sizlarga yuk bo‘lmabman–u, ammo yolg‘onu hiyla bilan sizlarni o‘z tomonimga og‘dirib olganmishman. 17 Sizlarning oldingizga yuborgan birorta odam orqali sizlardan foydalanib oldimmi? 18 Men Titusni sizning oldingizga borishga

undagan edim. Haligi boshqa birodar bilan u sizlarning oldingizga borib*, sizlardan foydalandimi? U men bilan bir niyatda xizmat qiladi, yo‘limiz bir–ku!

19 Yuqorida aytib o‘tgan gaplarimizning hammasi o‘zimizni sizlarning oldingizda himoya qilish uchun yozilgan, deb o‘ylayapsizlarmi? Bilib qo‘ying, biz bu gaplarni Masihning qullari sifatida Xudoning shohidligida aytyapmiz. Aziz do‘stlar, qilayotgan ishlarimizning hammasi sizlarni imonda qo‘llab–quvvatlash uchundir. 20 Men bir narsadan qo‘rqib turibman: sizlarning oldingizga borganimda, nimani ko‘rarkinman, sizlar men o‘ylagan odamlar bo‘lib chiqmasangiz, men ham sizlar o‘ylagan odam bo‘lib chiqmasam–a! Borganimda orangizda janjalu hasadgo‘ylik, jaholat, raqobat, bo‘hton, g‘iybat, manmanlik va tartibsizlikni ko‘raman degan xavotirdaman. 21 Bordi–yu, yana yoningizga borganimda, orangizdagi ko‘pchilik oldin qilgan gunohlaridan tavba qilmay, ifloslik, jinsiy axloqsizlik va fisqu fujurni davom ettirayotgan bo‘lsa, Xudoyimning oldida uyatga qolmay, sizlar uchun motam tutib, yig‘lamayin.

13–BOB

So‘nggi pand–nasihatlar va salomlar

1 Men endi sizlarning oldingizga uchinchi marta boraman*. O‘zingiz bilasiz, har bir ish ikkita yoki uchta guvohning so‘zlari asosida ko‘rib chiqiladi*. 2 Men sizlarning oldingizga ikkinchi marta borganimda gunoh qilganlarni ham, qolganlarni ham ogohlantirgan edim. Endi sizlarning oldingizda bo‘lmasam ham, yana ogohlantirib aytyapman, keyingi safar gunoh qilganlarning hech birini ayamayman. 3 Masih men orqali gapirayotganini isbotlashimni xohlayapsizmi? Mening xatti–harakatim buning dalili emasmi?! Masih sizlar bilan bo‘lgan munosabatida zaif emas, aksincha, U orangizda O‘z qudratini namoyish qilyapti. 4 U insoniy tanasining zaifligi tufayli xochga mixlanib o‘ldirilgan edi, ammo endi Xudoning qudrati tufayli tirikdir. Biz ham Masihning insoniy zaifligiga sherik bo‘lsak–da, o‘zingiz ko‘rasiz, Xudoning qudrati tufayli Masihning hayotiga ham sherik bo‘lamiz.

5 O‘zingizni o‘zingiz tekshirib ko‘ringlar. Qani, imonda turibsizlarmi? O‘zingizni sinab ko‘ringlar. Iso Masih orangizda ekanligini bilmaysizmi? Buni bilmasangiz, sinovdan o‘tmagan bo‘lasiz. 6 Biz sinovdan o‘tganligimizni bilasiz degan umiddaman. 7 Sizlar hech qanday yomon ishlar qilmasligingizni Xudodan iltijo qilamiz. Bu bizning sinovdan o‘tganligimizni isbotlash uchun emas. Mabodo, biz sinovdan o‘tmagan bo‘lib tuyuladigan bo‘lsak ham, sizlar to‘g‘ri ish qilavering. 8 Zotan, biz haqiqatga qarshi tura olmaymiz, balki haqiqat yo‘lida ish tutamiz. 9 Bizlar zaif, sizlar esa kuchli bo‘lganingizdan xursandmiz. Axir, sizlar komil bo‘lishingiz uchun Xudoga iltijo qilamiz. 10 Shuning uchun sizlarning yoningizda bo‘lmasam ham shularni yozyapman. Toki oldingizga borganimda Egamiz menga bergan hokimiyat bilan sizlarga qattiq muomala qilmayin. Axir, menga bu hokimiyat sizlarni barbod qilish uchun emas, balki imoningizni mustahkamlash uchun berilgan.

11 Shunday qilib, birodarlarim, endi sizlar bilan xayrlashaman. Kamolotga intilaveringlar, bir–biringizga dalda beringlar, hamfikr bo‘linglar, o‘zaro ahil–inoq bo‘lib yashanglar. Shunda mehr–muhabbat va tinchlik manbai bo‘lgan Xudo sizlar bilan bo‘ladi. 12 Bir–biringiz bilan o‘pishib ko‘rishinglar. Xudoning bu yerdagi hamma azizlari sizlarga salom aytyapti.

13 Rabbimiz Iso Masihning inoyati, Xudoning mehr–muhabbati va Muqaddas
Ruhning hamrohligi hammangizga yor bo‘lsin!*

IZOHLAR

1:1 *Timo‘tiy* — 1 Korinfliklar 4:17 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

1:1 *Axaya viloyati* — Rim imperiyasiga qarashli viloyat bo‘lib, poytaxti Korinf shahri edi.

1:16 *…niyatim bor edi* — Pavlusning Korinfga qilgan safarlari haqida batafsil ma’lumot qolmagan. Ba’zi olimlar Pavlusning safarlari haqida quyidagicha mulohaza qiladilar: Pavlus Korinfdagi jamoatga asos solgan (Havoriylar 18:1-11 ga qarang). Shundan keyin Pavlus yana bir bor Korinfga borgan (12:14, 13:1 ga qarang). Ana shu ikkinchi safari paytida yoki undan oldin yozgan maktubida (1 Korinfliklar 5:9 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang) Pavlus Korinfliklarga, sizlarni yana ko‘rish niyatim bor, deb aytgan edi. Shuning uchun Pavlus Makedoniyaga ketayotganda va u yerdan qaytayotganda Korinfda to‘xtab o‘tishni rejalashtirdi. Ammo keyinchalik Korinf jamoatidagi muammolar haqida eshitgandan so‘ng, Makedoniyaga ketayotganda Korinfga kirmaslikka qaror qildi. Pavlus, Korinfliklar bilan ko‘rishganimda oramizga sovuqchilik tushmasin deb, ularga o‘zlarining muammolarini hal qilishga vaqt bermoqchi bo‘lgandi (1:23, 13:1-10 ga qarang). U Efesda bo‘lganda Korinfliklarga maktubni (ya’ni “1 Korinfliklar” maktubini) yozib, ularga o‘sha muammolarni yechish haqida maslahat bergan. Pavlus o‘sha maktubida rejalari o‘zgargani, Korinfga faqat Makedoniyadan qaytayotganda kirib o‘tishini aytib o‘tgan (1 Korinfliklar 16:5-9 ga qarang). Pavlusning o‘zgargan rejalarini Korinfdagi raqiblari unga qarshi ishlatgan. Ular boshqalarda Pavlus haqida salbiy taassurot qoldirish niyatida Pavlusni ishonchsiz, so‘zida turmaydigan odam, deb aytganlar. Pavlus Makedoniyaga borgandan keyin, Korinfda bo‘layotgan voqealar haqida va Korinfliklar uning maktubiga (ya’ni “1 Korinfliklar” maktubiga) qanday munosabat bildirganlarini Titusdan eshitgach, Korinfliklarga yana bir maktubni (ya’ni “2 Korinfliklar” maktubini) yozgan (7:5-9 ga qarang).

1:16 *…Yahudiyaga…* — Quddusdagi masihiylarga moddiy yordam berish uchun Pavlus nazr yig‘ishni rejalashtirgan edi (1 Korinfliklar 16:1 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang).

1:19 *Silas* — yunoncha matnda bu ismning boshqa varianti *Silvanus*. Silas ilk jamoatning yetakchisi bo‘lib, havoriy Pavlusning Xushxabar yoyish maqsadida qilgan ikkinchi safarida unga hamroh edi (Havoriylar 15:22, 32, 36-41 ga qarang).

2:1 *Yana xafagarchilik keltirmaslik uchun sizlarning oldingizga bormaslikka qaror qildim* — Pavlus Korinfdagi jamoatga asos solgandan keyin (Havoriylar 18:1-11 ga qarang), yana bir bor u yerga borgan edi (12:14, 13:1 ga qarang). Uning bu ikkinchi safari haqida hech qanday ma’lumot saqlanib qolmagan. Chamasi, Korinfdagi jamoatda muammolar bo‘lgan va Pavlus Korinfga qilgan bu ikkinchi safari davomida ko‘ngilsizliklarga duch kelgan. Pavlus Korinfga bo‘ladigan navbatdagi safari davomida oldingiday ko‘ngilsizliklarga duch kelishni xohlamayapti.

2:3 *Oldingi maktub* — “1 Korinfliklar” maktubiga ishora bo‘lsa kerak. 1:16 ning birinchi izohiga qarang.

2:5 *Meni xafa qilgan odam* — bu o‘rinda Pavlus kim haqida gapirayotgani aniq emas. 1 Korinfliklar 5:1-5 da aytib o‘tilgan odam yoki muammolar keltirib chiqarayotgan

boshqa bir odam bo‘lishi mumkin. Kim bo‘lishidan qat’i nazar, jamoat unga tanbeh bergan va u odam o‘z gunohlaridan tavba qilgan.

2:13 *Titus* — Pavlusning hamkori va yordamchisi (8:23 ga va Titus 1:4-5 ga qarang).

2:14 *tantanali yurishi* — bu o‘rinda ishlatilgan yunoncha so‘z urushdan g‘alaba bilan qaytgan Rim lashkarining tantanali yurishiga nisbatan ham ishlatilgan. Rim lashkarboshisi urushdan qaytib kelganda, Rim shahrining ko‘chalari bo‘ylab lashkari bilan tantanali yurish qilar edi. Asir olingan dushmanlar esa hammaning ko‘zi oldida ularning ortidan yurardi. Bu tantanali yurish bayram tusini olardi, kuydirilgan tutatqi va ziravorlarning xushbo‘y hidi butun shahar bo‘ylab taralardi.

3:2 *yuragimiz* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *yuragingiz*.

3:3 *…tosh lavhalarga emas, balki inson qalbining lavhalariga yozilgandir* — tosh lavhalarga yozilgan eski ahdga (Chiqish 24:12, 31:18, 32:15-16 ga qarang) va odamlarning yuraklariga yozilgan yangi ahdga ishora (Yeremiyo 31:31-34, 32:39-40, Hizqiyol 11:19-20, 36:26-27 ga qarang).

3:6 *yangi ahd* — shu bobning 3–oyati izohiga va Ibroniylar 7:22, 8:1-10:39 ga qarang.

3:6 *…qonun o‘limga yetaklaydi, Ruh esa hayot bag‘ishlaydi* — Rimliklar 2:12, 7:5-8:11, Galatiyaliklar 3:10-14, 19-25 ga qarang.

3:7 *Musoning o‘sha ulug‘vorlikdan porlayotgan yuzi* — Chiqish 34:29-30 ga qarang.

3:13 *…Muso yuzini yopgan edi* — Chiqish 34:33-35 ga qarang.

3:18 *Egamizning ulug‘vorligi* — 4:4 ga va Yuhanno 14:9, Kolosaliklar 1:15, 19, Ibroniylar 1:2-3 ga qarang.

3:18 *…Egamizning ulug‘vorligini ko‘rib turibmiz* — yoki *…Egamizning ulug‘vorligini ko‘zguda ko‘rganday ko‘rib turibmiz*.

4:4 *Bu dunyoning xudosi* — ya’ni shayton.

4:6 *…O‘z so‘zi bilan zulmatdan nur yaratgan edi* — Ibtido 1:3 ga qarang.

4:12 *…o‘lim xavfi ostida yashashimiz sizlarga abadiy hayot keltiradi* — Pavlus o‘z xizmati davomida, boshqalarga Xushxabarni targ‘ib qilish yo‘lida ko‘p azob chekkanini nazarda tutgan (Havoriylar 9:15-16, 2 Timo‘tiy 1:8-12 ga qarang). Iso Masih O‘z faoliyati davomida boshqalarni O‘zidan ustun qo‘ygani sari, Masihga hayotini bag‘ishlagan Pavlus ham Undan o‘rnak olib, Xushxabar va Masih haqi azob chekishga tayyor bo‘lgan (Mark 10:45 ga qarang).

4:13 Muallif bu o‘rinda Zabur 115:1 ning qadimiy yunoncha tarjimasidan foydalangan.

5:16 *Bir vaqtlar* — ya’ni Iso Masihga imon keltirishdan oldin.

5:18 *U Masih orqali bizni O‘zi bilan yarashtirdi…* — Rimliklar 5:1-11, Kolosaliklar 1:21-22 ga qarang.

5:21 *…Xudo…Masihni gunohkorni jazolaganday, jazoladi* — Ishayo 53:5-6 ga qarang.

6:2 Muallif bu o‘rinda Ishayo 49:8 ning qadimiy yunoncha tarjimasidan foydalangan.

6:7 *solihlik qurollari* — 10:3-5 ga va Rimliklar 13:12, Efesliklar 6:10-20 ga qarang.

6:14 *Imonsizlar bilan sherik bo‘lmanglar* — yunoncha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *O‘zlaringizni imonsizlar bilan birga qo‘shga qo‘shmang*, Tavrotdan olingan hikmat

bo‘lishi mumkin (Qonunlar 22:10 ga qarang). Bu o‘rinda Pavlus hamma imonsizlar bilan bo‘lgan munosabatlar haqida yozmayapti. U soxta ustozlarni va soxta imonlilarni jamoatga qo‘shmaslikni nazarda tutgan bo‘lishi mumkin (11:2-6, 13-15, 20, 1 Korinfliklar 5:9-13 ga qarang). Shuningdek, Pavlus imonsizlar bilan turmush qurmaslik haqida ham maslahat berayotgan bo‘lishi mumkin (ammo turmush qurgandan keyin imonga kelganlarga berilgan maslahatlarini o‘qish uchun 1 Korinfliklar 7:12-16 ga qarang).

6:15 *shayton* — yunoncha matnda *Beliar*, shaytonga nisbatan ishlatilgan nom.

6:16 Levilar 26:12, Hizqiyol 37:27 ga qarang.

6:17 Ishayo 52:11, yana Hizqiyol 20:41 ga qarang.

6:18 2 Shohlar 7:14, yana Ishayo 43:6 ga qarang.

7:2 *Bizga bo‘lgan mehringizni ko‘rsating* — 6:11-13 ga qarang.

7:6 *Titus* — 2:13 izohiga qarang.

7:8 *maktubim* — “1 Korinfliklar” maktubiga ishora bo‘lsa kerak. 1:16 ning birinchi izohiga qarang.

7:12 *ayb ish qilgan inson* — 2:5-8 oyatlarga va 2:5 izohiga qarang.

8:1 *Makedoniyadagi jamoatlar* — Filippi, Salonika va Veriya shaharlaridagi jamoatlarga ishora bo‘lsa kerak. Pavlus Xushxabar yoyish maqsadida qilgan ikkinchi safari davomida bu jamoatlarga asos solgan edi (Havoriylar 16:9-17:15 ga qarang). Pavlus yana bir bor Makedoniyaga borgan paytda “2 Korinfliklar” maktubini yozgan. Makedoniya viloyati Axaya viloyatidan shimolda joylashgan edi. Korinf shahri Axaya viloyatining poytaxti edi.

8:4 *...Xudoning Quddusdagi azizlariga...* — 1 Korinfliklar 16:1 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

8:7 *...biz tufayli qalbingizda uyg‘ongan mehr–muhabbatingiz...* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *sizlarning bizga bo‘lgan mehr–muhabbatingiz*.

8:9 *...U boy bo‘lsa ham...kambag‘al bo‘ldi* — Yuhanno 17:5, Filippiliklar 2:6-8 ga qarang.

8:15 Chiqish 16:18 ga qarang.

8:18-19 *U bilan birga...maqtalgan birodarni ham yubordik.* [19]*...jamoatlar uni bizga yo‘ldosh qilib saylagan edilar* — Pavlus Titusni Makedoniyadan Korinfga jo‘natgan, shu yozgan maktubini (ya’ni “2 Korinfliklar” maktubini) undan berib yuborgan. Korinfliklar Quddusdagi masihiylar uchun yig‘adigan nazrlarini Titus va unga hamroh bo‘lib borgan birodar olishlari va saqlab qo‘yishlari kerak edi (1 Korinfliklar 16:1 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang). Keyinchalik, Pavlus o‘z hamkorlari va Titusning hamrohi bilan birga Korinfda yig‘ilgan nazrlarni Quddusga olib boradi. Shu bobning 22–oyatida Pavlus Titus bilan birga Korinfga yuborilgan yana bir birodar haqida yozgan. Titusning hamrohi bo‘lgan bu ikki birodar haqida boshqa hech qanday ma’lumot yo‘q.

9:1 *...Xudoning Quddusdagi azizlari uchun beriladigan yordam...* — 1 Korinfliklar 16:1 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

9:2 *Axaya* — Rim imperiyasiga qarashli viloyat bo‘lib, poytaxti Korinf shahri edi.

9:2 *Makedoniya* — 8:1 izohiga qarang.

9:3 *...birodarlarni sizlarning oldingizga yuboryapman* — 8:18-19 izohiga qarang.

9:9 Zabur 111:9 ga qarang.

10:7 *Sizlar mening havoriy ekanligimni nahotki bilmasangizlar?!* — yunoncha matnda *Ko‘z oldingizda bo‘lganlarga qarang!* yoki *Sizlar tashqi qiyofaga qarab baho beryapsizlar*.

10:17 *...kim maqtanmoqchi bo‘lsa, Egamizning qilgan ishlari bilan maqtansin* — Yeremiyo 9:24 ga qarang.

11:3 *...Momo Havo ilonning yolg‘on–yashiqlariga ishonib, yo‘ldan ozgani kabi...* — Ibtido 3:1-6, 13 ga qarang.

11:9 *Makedoniyadan kelgan birodarlar* — Pavlus Xushxabar yoyish maqsadida qilgan ikkinchi safari davomida Filippi, Salonika va Veriya shaharlarida jamoatlarga asos solgan edi (Havoriylar 16:9-17:15 ga qarang). Bu shaharlar Makedoniyada bo‘lgan. Makedoniya viloyati Axaya viloyatidan shimolda joylashgan edi. Korinf shahri Axaya viloyatining poytaxti edi.

11:24 *...bir kam qirqtadan...* — qamchilash jinoyat uchun beriladigan jazolardan biri edi. Tavrot qonuniga ko‘ra, qirq darradan ortiq qamchilash mumkin emas edi (Qonunlar 25:3 ga qarang). Shu sababdan qirq qamchidan oshib ketmaslik uchun 39 darra urilgan va bu jazolash eng og‘ir qamchilash jazosi bo‘lgan.

11:25 *Bir marta toshbo‘ron bo‘ldim...* — Havoriylar 14:19-20 ga qarang.

11:32 *shoh Xaretas* — Hirod Antipasning qaynatasi. U miloddan oldingi 9 yildan to milodiy 40 yilgacha qadimgi Falastindan janubi–sharqdagi Nabateya yurtida hukmronlik qilgan. Nabateyaning poytaxti Petra shahri edi. O‘sha paytlarda Damashq shahri ham Xaretas qo‘li ostida edi. Iso Masih Pavlusga zohir bo‘lgandan keyin, Pavlus Nabateyada birmuncha vaqt o‘tkazgan bo‘lishi mumkin (Galatiyaliklar 1:17 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang). Ehtimol, Pavlus u yerda Xushxabar aytgan va Xaretas Pavlus haqida eshitgan.

11:32 *...meni savat ichida shahar devoridagi derazadan tushirishdi...* — Havoriylar 9:23-25 oyatlarga va Havoriylar 9:25 izohiga qarang.

12:2 *Masihga qarashli bir odamni bilaman* — Pavlusning o‘zini nazarda tutgan.

12:2 *arshi a’lo* — yunoncha matnda *uchinchi osmon*.

12:14 *...sizlarning oldingizga uchinchi marta borishga tayyorman* — 2:1 izohiga qarang.

12:18 *Haligi boshqa birodar bilan u sizlarning oldingizga borib...* — 8:17-19 oyatlarga va 8:18-19 izohiga qarang.

13:1 *...sizlarning oldingizga uchinchi marta boraman* — 2:1 izohiga qarang.

13:1 *...har bir ish ikkita yoki uchta guvohning so‘zlari asosida ko‘rib chiqiladi* — bu gapi bilan Pavlus Korinfdagi muammolarni hal qilishda odillik bilan ish tutishga va’da beryapti (Qonunlar 19:15, Matto 18:15-16 ga qarang).

13:13 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida quyidagi so‘z oyatga qo‘shimcha qilingan: *omin*.

PAVLUSNING
GALATIYALIKLARGA
MAKTUBI

Kirish

Mazkur maktub muallifi havoriy Pavlusdir. Galatiya Rim imperiyasining bir viloyati bo‘lib, hozirgi Turkiyaning markaziy qismida joylashgan edi. Havoriy Pavlus Galatiyaning ba’zi hududlarida Iso Masih haqidagi Xushxabarni targ‘ib etdi. Buning natijasida u yerda imonlilar jamoatining bir nechtasi vujudga keldi.

Bir qancha vaqt o‘tgandan keyin Pavlusga qarshi bo‘lgan ba’zi odamlar Galatiyaga borib, u yerdagi jamoatlarga o‘z ta’sirini o‘tkaza boshladilar. Ularning ta’limoti bo‘yicha, inson Xudoning nazarida solih bo‘lishi uchun nafaqat Iso Masihga imon keltirishi, balki yahudiy dinining qonunlarini bajarishi lozim edi. Bu odamlar Galatiyalik imonlilarni sunnat qilinishga undar edilar. Pavlus esa sunnatga emas, aksincha, imonga urg‘u beradi. U Galatiyalik masihiylarni qat’iyan ogohlantirib, qonun bo‘yinturug‘ini taqmanglar, Masihdagi ozodlikdan mahrum bo‘lmanglar, deb aytadi.

Pavlus bu maktubni jamoatdagi yolg‘on ta’limotlarni fosh qilish niyatida yozgan. U Galatiyalik masihiylarni Iso Masihga bo‘lgan haqiqiy imonni mahkam tutishga undaydi. Pavlus maktubda birinchi navbatda o‘zining Xudo tomonidan yuborilgan havoriy ekanini ta’kidlab, ta’limoti haqqoniy ekaniga urg‘u beradi.

Maktub davomida muallif, inson faqatgina Iso Masihga bo‘lgan imoni orqali Xudoning oldida oqlanadi, deb aytadi. So‘ng Ibrohim payg‘ambarning hayotidan misollar keltiradi, qonun va imonning ziddiyati hamda ikkalasining asl mohiyatini tushuntiradi.

Maktubning so‘nggi boblarida Pavlus inson faqat imon bilan yashashi kerakligini ta’kidlaydi. Muqaddas Ruhdagi ozodlikdan bahra olib, Muqaddas Ruh boshchiligida yangi hayot kechirishi kerakligiga urg‘u beradi.

1–BOB

Duoyi salom

1-2 Men — Pavlus va men bilan birga bo‘lgan hamma birodarlar Galatiya viloyatidagi
imonlilar jamoatlariga salom yo‘llaymiz. Men insonlar tomonidan emas, inson orqali
ham emas, balki Iso Masih va Uni tiriltirgan Otamiz Xudo tomonidan havoriy qilib
tayinlanganman. 3 Otamiz Xudo va Rabbimiz Iso Masih sizlarga inoyat hamda tinchlik
ato qilsin. 4 Iso Masih bizni hozirgi yovuz zamondan qutqaray deb, bizning gunohlarimiz
uchun O‘zini fido qildi. U shu yo‘sin Otamiz Xudoning irodasini ado etdi. 5 Xudoga
abadulabad shon–sharaflar bo‘lsin! Omin.

Yagona Xushxabar

6 Sizlar Xudodan shunchalik tez yuz o‘girib, boshqa bir xushxabarga yuz
burayotganingizdan juda hayronman. Axir, Masihning inoyati orqali Xudo sizlarni O‘z
Xushxabariga da’vat qilgan edi. 7 O‘sha Xushxabardan boshqa hech qanday xushxabar

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

yo‘q–ku! Faqat ba’zilar sizlarni chalg‘itib, Masih haqidagi Xushxabarni buzib
ko‘rsatmoqchi bo‘ladilar. 8 Ammo kimda–kim, hatto biz o‘zimizmi yoki osmondan kelgan
biror farishtami, sizlarga biz yetkazgan Xushxabardan boshqa bir xushxabar keltirsa, u
la’nati bo‘lsin! 9 Men oldin ham aytgan edim, hozir ham aytyapman: kimki sizlar qabul
qilgan Xushxabarga zid bo‘lgan xabarni targ‘ib etsa, la’nati bo‘lsin!
10 Xo‘sh, men kimning maqtoviga sazovor bo‘lmoqchiman: insonlarningmi yoki
Xudoningmi?! Nahotki insonlarni mamnun qilmoqchi bo‘lsam?! Agar men hali ham
insonlarni mamnun qilayotgan bo‘lsam edi, Masihning quli bo‘lolmas edim!

Xushxabarni targ‘ib etishga Pavlusni Xudo da’vat qilgan

11 Ey birodarlar, sizlarga aytib qo‘yay: men targ‘ib etayotgan Xushxabar inson ijodi
emas. 12 Axir, men bu Xushxabarni insondan qabul qilmaganman yoki biror odamdan
o‘rganmaganman. Uni menga Iso Masihning O‘zi vahiy orqali ayon qilgan.
13 Men yahudiy diniga e’tiqod qilib, qanday hayot kechirganim haqida eshitgansizlar.
O‘sha paytlarda Xudoning jamoatini shafqatsizlarcha quvg‘in qilardim, uni qirib
tashlashga harakat qilardim. 14 Qavmimdan bo‘lgan ko‘p tengdoshlarimga qaraganda,
yahudiy dinini chuqurroq tushunib, ulardan ancha ilgarilab ketgan edim. Ota–
bobolarimning urf–odatlarini deb, jonkuyarlik qilardim. 15 Ammo Xudo menga muruvvat
qildi, inoyati bilan meni O‘ziga da’vat etib, onam qornida bo‘lganimdayoq meni tanlagan
edi. 16 Men g‘ayriyahudiylar orasida Xudo O‘g‘li haqidagi Xushxabarni targ‘ib qilishim
uchun, Xudo O‘z O‘g‘lini menga zohir qildi. Shunda men hech bir inson bilan
maslahatlashmadim. 17 Hatto mendan oldin havoriy bo‘lganlarni ko‘rish uchun
Quddusga bormay, darhol Arabistonga jo‘nadim. Undan keyin yana Damashqqa
qaytdim*.
18 Uch yildan keyin*, Butrus* bilan tanishay deb, Quddusga bordim*. Uning yonida
o‘n besh kun bo‘ldim. 19 Ammo Quddusda Butrusdan va Rabbimiz Isoning ukasi
Yoqubdan* boshqa hech bir havoriyni ko‘rmadim. 20 Men sizlarga nima yozayotgan
bo‘lsam, Xudo shohid, hech biri yolg‘on emas.
21 Undan so‘ng Suriya va Kilikiya hududlariga bordim*. 22 Yahudiya o‘lkasidagi
imonlilar jamoatlari meni hali shaxsan tanimas edilar. 23 O‘sha imonlilar men haqimda
faqat boshqalarning: “U bir vaqtlar bizlarni quvg‘in qilib yurgan kishi edi. Endi esa ilgari
ildizi bilan quritmoqchi bo‘lgan imonni o‘zi targ‘ib qilmoqda” degan gaplarini
eshitardilar 24 va men tufayli Xudoni ulug‘lar edilar.

2–BOB

Quddusdagi havoriylar Pavlusning ishlarini ma’qullaydi

1 O‘n to‘rt yil o‘tgandan keyin, men Barnabo* bilan birga yana Quddusga bordim*.
Titusni* ham yonimga olgan edim. 2 Xudo menga bergan vahiyga binoan u yerga
borgandim. O‘sha yerdagi jamoatning e’tiborli yetakchilari bilan alohida uchrashdim.
Ularga g‘ayriyahudiylar orasida o‘zim targ‘ib qilayotgan Xushxabarning mohiyatini
bayon etdim. Buni oldin qilgan va hozir qilayotgan ishlarim behuda ketmasligi uchun
qilgan edim. 3 Hatto hamrohim Titus, yunon bo‘lishiga qaramay, sunnat qilinishga
majbur etilmadi. 4 Ammo ba’zi soxta birodarlar bildirmaygina oramizga kirib olib, Iso
Masih bizga ato etgan ozodlik haqida surishtirib ko‘rdilar. Ularning maqsadi bizni yana
qullarga aylantirish edi. 5 Biz esa, Xushxabarning haqiqati doimo sizlar bilan bo‘lsin deb,

ularga zarracha ham yon bermadik.
[6] E’tiborli hisoblangan yetakchilar bilan uchrashganim haqida aytib o‘tdim. Ularning qanday martabaga egaligi menga baribir, zotan, Xudo insonlar orasida tarafkashlik qilmaydi. Endi ularga kelganda shuni aytay, ular mendan boshqa hech nima talab qilmadilar. [7] Aksincha, yahudiylarga Xushxabar yetkazish Butrusga buyurilganday, g‘ayriyahudiylarga Xushxabar yetkazish menga buyurilganini ular tushunib yetdilar. [8] Axir, Butrusni yahudiylar orasida havoriylik faoliyatini ko‘rsatishga tayinlagan Xudo meni ham g‘ayriyahudiylar orasida xizmat qilishga tayinladi. [9] Shunday qilib, Xudo menga bu ish uchun alohida inoyat berganiga Yoqub*, Butrus* va Yuhanno ishonch hosil qildilar. Imonlilar jamoatining ustuni hisoblanmish bu havoriylar biz bilan qo‘l tashlashdi: men va Barnabo g‘ayriyahudiylar orasida, ular esa yahudiylar orasida xizmat qilishga rozi bo‘lishdi. [10] Ular bizdan, faqat kambag‘allarga g‘amxo‘rlik qilishni davom ettiringlar*, deb iltimos qildilar. Shaxsan men anchadan beri bu haqda jon kuydirardim.

Pavlus Antioxiyada Butrusga tanbeh beradi

[11] Butrus Antioxiya shahriga kelganda*, uning noto‘g‘ri ish tutayotganligini ochiqchasiga yuziga aytdim. [12] Chunki Quddusdan — Yoqubning oldidan ba’zi odamlar kelmasdan avval Butrus g‘ayriyahudiylar bilan birga yeb–ichib yurgan edi. Ammo ular kelgandan keyin Butrus sunnat tarafdori bo‘lganlardan* xavotirlanib, o‘zini chetga oldi va g‘ayriyahudiylar bilan birga bir dasturxonda o‘tirmaydigan bo‘ldi. [13] Shunda boshqa yahudiy masihiylar ham Butrusga o‘xshab ikkiyuzlamachilik qilishdi. Hatto Barnabo ham ularning ikkiyuzlamachiligi tufayli yo‘ldan ozdi. [14] Men ularning Xushxabar haqiqati bo‘yicha ish tutmayotganini ko‘rib, hammaning oldida Butrusga shunday dedim: “Mana siz yahudiy bo‘la turib, yahudiylar kabi emas, g‘ayriyahudiylarday yashayapsiz. Shunday ekan, qanday qilib g‘ayriyahudiylarni yahudiylar kabi yashashga majbur qila olasiz?”

Inson faqatgina Masihga bo‘lgan imoni tufayli oqlanadi

[15] To‘g‘ri, bizlar yahudiy naslidanmiz, gunohkor hisoblangan g‘ayriyahudiylardan emasmiz. [16] Lekin shuni bilamizki, inson qonunga* amal qilish bilan emas, balki Iso Masihga bo‘lgan imoni orqali oqlanadi. Shuning uchun ham biz qonunga amal qilish bilan emas, Masihga bo‘lgan imonimiz tufayli oqlanamiz deb, Iso Masihga ishondik. Axir, hech kim qonunga amal qilish bilan oqlanmaydi. [17] Mana, biz Masih orqali oqlanishga intilyapmiz, bu esa biz ham g‘ayriyahudiylar qatori gunohkor ekanligimizni* ko‘rsatib turibdi. Bundan kelib chiqadiki, gunohkorligimizning sababchisi Masih ekan–da? Yo‘q, aslo! [18] Ammo men o‘zim qulatgan qonun–qoidalar binosini qaytadan qurishga kirishadigan bo‘lsam, unda men yana qonunbuzar bo‘lib qolaman*. [19] Axir, qonunning o‘zi meni o‘limga mahkum qildi. Endi men Xudo uchun yashay deb, qonun uchun o‘lganman*. Men Masih bilan birga xochga mixlab qo‘yilganman. [20] Endi yashayotgan men emas, balki Masihdir. U mening hayotimni boshqaryapti. Hali tirik ekanman, Xudoning O‘g‘liga bo‘lgan imon bilan yashayman. Axir, U meni sevib, O‘zini men uchun fido qilgan. [21] Men Xudoning inoyatini inkor qilmayman. Agar qonunga amal qilish bilan oqlanish mumkin bo‘lganda edi, Masih behuda o‘lgan bo‘lardi.

3–BOB

Qonunga amal qilish va Masihga ishonish haqida

1 Ey befahm Galatiyaliklar! Kim sizlarni sehrlab qo‘ydi?* Axir, Iso Masihning xochga
mixlangani ko‘z o‘ngingizda aniq tasvir etilmaganmidi?! 2 Sizlardan faqatgina bir narsani
so‘rab bilmoqchiman! Xo‘sh, sizlar Ruhni qanday qilib oldingizlar: qonunga* amal qilish
orqalimi yoki eshitganlaringizga ishonish orqalimi? 3 Sizlar shunchalik befahmmisizlar?
Ruh qudrati bilan yangi hayot boshlagan ekansiz, endi uni o‘z insoniy kuchingiz bilan
kamolga yetkazmoqchimisiz? 4 Tatib ko‘rganlaringizning hammasi behuda ketdimi?
Nahotki rostdan ham behuda ketgan bo‘lsa?! 5 Xudo sizlarga O‘z Ruhini ato etib,
orangizda mo‘jizalar yaratmoqda. Nima deb o‘ylaysiz: U buni qonunga amal qilganingiz
uchun qilyaptimi yoki eshitganlaringizga ishonganingiz uchunmi?!

6 Muqaddas bitiklarda Ibrohim haqida shunday yozilgan: “U Xudoga ishondi, mana
shu ishonchi uchun Xudo uni solih deb bildi.”* 7 Shundan bilinglarki, kim imonli bo‘lsa,
o‘sha inson Ibrohimning avlodi deb hisoblanadi. 8 Xudo dastavval Ibrohimga: “Barcha
xalqlar sen orqali baraka topadilar”*, deb Xushxabar keltirgan. Muqaddas bitiklardagi
bu so‘zlar shuni ko‘rsatadiki, Xudo g‘ayriyahudiylarni imon orqali oqlaydi. 9 Shuning
uchun kim imonli bo‘lsa, Xudoga ishongan Ibrohim qatori Xudoning barakasidan
bahramand bo‘ladi.

10 Qonunga amal qilish orqali Xudoni mamnun qilmoqchi bo‘lganlarning hammasi
la’nat ostidadir. Axir, Muqaddas bitiklarda: “Qonun kitobidagi amrlarning hammasini
to‘liq bajarmaganlar la’nat ostidadir!”* deb yozilgan–ku! 11 Shunday ekan, ko‘rinib
turibdiki, qonunga amal qilish bilan hech kim o‘zini Xudo oldida oqlay olmaydi, zotan,
solih inson imon tufayli hayotga ega bo‘ladi*. 12 Qonunni bajarish imonga asoslanmagan,
qonunda faqatgina amrlarning hammasini bajarganlarga hayot va’da qilingan*.

13 Masih esa bizni qonun la’natidan xalos qildi. U xochga mixlanganda bizning
o‘rnimizga la’natlandi. Axir, Muqaddas bitiklarda: “Yog‘ochga qoqilgan har bir kishi
la’natidir”*, deb yozilgan–ku! 14 Shu yo‘sin g‘ayriyahudiylar ham Iso Masih orqali
Xudoning Ibrohimga va’da qilgan barakalaridan bahramand bo‘ladilar, biz ham imon
orqali Xudo va’da qilgan Ruhni olamiz.

Xudoning va’dasi va qonunning g‘oyasi

15 Birodarlar! Hayotdan bir misol keltiray: odamning vasiyati tasdiqlangandan keyin
uni hech kim bekor qilolmaydi va unga hech narsa qo‘sholmaydi. 16 Endi esa Xudoning
Ibrohimga va uning zurriyotiga bergan va’dalariga qaraylik. Muqaddas bitiklarda
Ibrohimga: “Sening zurriyotlaringga*”, deb aytilmagan, aksincha, “Sening
zurriyotingga”*, deb aytilgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, va’dada ko‘pchilik emas, balki
bir Kishi, ya’ni Masih nazarda tutilgan. 17 Shuni aytmoqchimanki, Xudo Ibrohim bilan
ahd tuzgandan so‘ng 430 yil* o‘tgach, qonun berildi. Ammo tasdiqlangan ahdni qonun
kuchdan qoldirmadi, demak, Xudoning va’dasini bekor qilmadi. 18 Agar Xudoning in’omi
insonlarning qonunga amal qilishiga ko‘ra, beriladigan bo‘lsa, demak, va’daga ko‘ra,
berilmaydi. Ibrohimga esa Xudo O‘z in’omini va’da bo‘yicha berdi.

19 Unday holda qonun nima uchun berilgan? Qonun gunohkorligimizni ko‘rsatish
uchun berilgan. Ibrohimning va’da qilingan Zurriyoti* kelmaguncha, bu qonun joriy
bo‘lishi kerak edi. Qonun farishtalar tomonidan*, bir vositachi* orqali xalqqa berildi.

20 Vaholanki, odam bir o‘zi ish qilganda, vositachi kerak bo‘lmaydi. Tanho bo‘lgan Xudo
esa va’da berganda hech bir vositachisiz beradi.
21 Xo‘sh, qonun Xudoning va’dalariga zidmi? Aslo! Agar abadiy hayot ato qilishga
qodir bir qonun berilgan bo‘lsa edi, unda shubhasiz qonunga amal qilish bilan oqlansa
bo‘lar edi. 22 Ammo Muqaddas bitiklarga ko‘ra, butun borliq gunohning tutqunidir*.
Shuning uchun va’da faqat Iso Masihga ishonish orqali ro‘yobga chiqadi va imonlilarga
nasib bo‘ladi.
23 Imon yo‘li ayon bo‘lishidan avval, biz qonun nazorati ostidagi tutqunlar edik. O‘sha
imon ayon bo‘lishini kutayotgan edik. 24 Boshqacha aytganda, qonun Masihga
boshlovchi murabbiyimiz edi. Endi esa biz Masihga bo‘lgan imon orqali oqlanamiz.
25 Imon yo‘li ayon bo‘lgan ekan, biz endi murabbiyning tarbiyasida emasmiz.

Masihga ishonganlar Xudoning farzandlaridir

26 Endi sizlar Iso Masihga bo‘lgan imoningiz orqali Xudoning farzandisizlar. 27 Sizlar
suvda cho‘mdirilib, Masih bilan birlashdingiz. Har biringiz Masihga burkanib oldingiz.
28 Endi na yahudiy, na yunon* bor, na qul, na ozod bor, na erkak, na ayol bor. Sizlar Iso
Masihga tegishli bo‘lganingiz uchun hammangiz birsizlar. 29 Sizlar Masihniki ekansizlar,
demak Ibrohimning ham zurriyotisizlar, berilgan va’daning barakalaridan bahramand
bo‘lasizlar.

4–BOB

1 Men bunday demoqchiman: merosxo‘r hali yosh bola ekan, garchi u butun
mulkning egasi bo‘lsa ham, quldan hech farq qilmaydi. 2 U otasi belgilagan fursatgacha
vasiyga va uy–ro‘zg‘orni boshqaruvchi xizmatkorga bo‘ysunadi. 3 Xuddi shu singari,
bizlar ham oldin bolalarday bo‘lib, xurofot kuchlariga* qul edik. 4 Muddat bitgandan
keyin, Xudo O‘z O‘g‘lini yubordi. Uning O‘g‘li qonun* ostidagi hayot uchun ayoldan
tug‘ildi. 5 Xudoning O‘z O‘g‘lini yuborishdan maqsadi bizni qonun ostidagi hayotdan
xalos etib, O‘ziga farzand qilib olish edi. 6 Biz Xudoning farzandlari ekanligimizni
ko‘rsatish uchun U yuragimizga O‘z O‘g‘lining Ruhini yubordi. Bu Ruh orqali biz Xudoni
“Otajon”* deb chaqiramiz. 7 Demak, endi siz qul emas, balki farzandsiz. Farzand ekansiz,
Xudoning sharofati bilan U O‘z farzandlariga atagan qut–barakalarga ega bo‘lasiz.

Pavlus Galatiyaliklar uchun qayg‘uradi

8 Oldin sizlar Xudoni bilmagan paytingizda, asli xudolar bo‘lmagan kuchlarga qul
edingiz. 9 Endi esa Xudoni bilasizlar, to‘g‘rirog‘i, Xudo sizlarni biladi. Shunday ekan,
qanday qilib yana o‘sha kuchsiz, qadrsiz xurofotlarga qaytyapsiz?! Qanday qilib yana
o‘shalarga qul bo‘lishni xohlayapsiz?! 10 Sizlar belgilangan alohida kunlar, oylar, yillarga
rioya qilib, diniy marosimlar o‘tkazyapsiz! 11 Sizlar uchun qayg‘uryapman! Nahotki
sizlarni deb chekkan zahmatlarim bekor ketgan bo‘lsa?!
12 Ey birodarlar, sizlardan iltimos qilaman, menga o‘xshagan bo‘linglar, chunki men
ham sizlarga o‘xshab qonun ostidagi hayotdan ozodman. Sizlar menga hech ham ozor
bermagansiz. 13 O‘zingiz bilasiz, men sizlarga birinchi marta Xushxabar aytganimda,
jisman ojiz edim. 14 Ojizligim tufayli sizlarga og‘irligim tushgan bo‘lsa ham, mendan
nafratlanmadingiz, meni rad etmadingiz. Aksincha, meni Xudoning farishtasiday, xuddi
Iso Masihning O‘zini qabul qilganday qabul qildingiz. 15 Qani endi o‘sha
xayrixohligingiz?! Axir, o‘zim shohidman: agar iloji bo‘lganda, hatto ko‘zlaringizni ham

sug‘urib olib, menga bergan bo‘lardingiz! 16 Nahotki endi sizlarga haqiqatni aytganim
uchun dushmaningiz bo‘lib qolgan bo‘lsam?!
17 Ba’zi birovlar sizlarni o‘zlariga og‘dirib olishga tirishmoqdalar*. Lekin ular
sizlarning foydangizni ko‘zlamayaptilar. Sizlar ularning atrofida girdikapalak
bo‘lishingiz uchun ular bizni bir–birimizdan ajratib tashlamoqchi. 18 Yaxshi g‘oyaga
bag‘ishlanish yaxshidir. Lekin bu faqat men sizlarning oldingizdaligimda emas, balki
doim shunday bo‘lishi kerak. 19 Bolalarim, men sizlarni yangidan tug‘ayotganday,
to‘lg‘oq azobidaman. Maqsadim shuki, sizlarda Masihning tabiati namoyon bo‘lsin.
20 Sizlar meni taajjubga solib qo‘ydingiz! Qani, endi sizlarning oldingizda bo‘lsam–u,
boshqa ohangda gapira olsam!

Ibrohimning ikki o‘g‘li va ularning onalari misoli

21 Ey sizlar, qonun ostidagi hayotni afzal ko‘rganlar, menga aytinglar–chi, nahot
sizlar Tavrotdagi qonunlarni tushunmasangizlar?! 22 Axir, unda yozilganlardan
bilamizki, Ibrohimning ikki o‘g‘li bo‘lgan. O‘g‘illarining biri cho‘ridan*, ikkinchisi esa
ozod ayoldan* tug‘ilgan. 23 Cho‘risiniki inson tashabbusi bilan, ozod xotinikiki esa
Xudoning va’dasiga binoan tug‘ilgan edi. 24 Bunda ramziy ma’no bor. Ikki ona Xudoning
ikki ahdini* bildiradi: birinchisi — qullarni tug‘adigan Hojar bibi Sinay tog‘ida qilingan
ahdning ramzidir. 25 Hojar Arabistondagi Sinay tog‘ini* bildirsa–da, u yahudiy dinining
markazi bo‘lmish hozirgi Quddusning ramzidir. Axir, Quddus va uning bolalari
qullikdalar–ku. 26 Samoviy Quddus esa ozoddir: u bizlarning onamizdir! 27 Muqaddas
bitiklarda shunday yozilgan:

> “Ey bola ko‘rmagan bepusht ayol!
> Shod bo‘lgin!
> Ey to‘lg‘oq og‘rig‘ini bilmagan ayol!
> Xitob qil, hayqirgin!
> Axir, tashlab ketilgan ayolning bolalari
> Eri bor xotinnikidan ham ko‘proq bo‘ladi!”*

28 Sizlar esa, ey birodarlar, Is’hoqqa o‘xshab va’daga binoan tug‘ilgan farzandlarsiz.
29 O‘sha zamonda tabiiy yo‘l bilan tug‘ilgan o‘g‘il* Ruhning kuchi bilan tug‘ilgan o‘g‘ilni*
quvg‘in qildi. Hozir ham xuddi shunday. 30 Ammo bu haqda Muqaddas bitiklarda nima
deyilgan? “Cho‘rini va uning o‘g‘lini haydab yuboring, chunki cho‘rining o‘g‘li ozod
ayolning o‘g‘li bilan birga merosxo‘r bo‘lmaydi”*, — deb yozilgan–ku! 31 Shunday qilib,
ey birodarlar, biz cho‘rining emas, balki ozod ayolning farzandlarimiz.

5–BOB

Masih ozodlik ato etadi

1 Bizga erkinlik berish uchun Masih bizni ozod qildi. Endi shu erkinlikni mahkam
tutinglar, qaytadan qullik bo‘yinturug‘ini* taqmanglar. 2 Mana, men, Pavlus, sizlarga
aytyapman: agar sizlar sunnat qilinsangiz*, Masihning sizlarga hech qanday foydasi
yo‘q. 3 Sunnat qilinadigan har bir odamga yana ta’kidlab aytaman: u butun qonunni*
bajarishga majburdir. 4 Sizlar, qonunni bajarish bilan o‘zimizni oqlaymiz deb, Masihdan
ajraldingizlar va o‘zingizni Xudoning inoyatidan mahrum qildingizlar. 5 Bizlar esa Ruhga

tayanib, Xudo bizni imonimiz tufayli solih deb e’lon qilishini intizorlik bilan kutyapmiz.
6 Iso Masihga tegishli bo‘lganlar orasida sunnat qilingan, qilinmaganlikning hech
ahamiyati yo‘q. Faqatgina mehr–muhabbat orqali ifodalangan imonimiz muhimdir.
7 Sizlar imon yo‘lida olg‘a qadam bosayotgan edingiz. Xo‘sh, haqiqatga quloq
solishingizga kim xalaqit berdi? 8 Albatta Xudo emas! Uning O‘zi sizlarni da’vat qilgan–
ku! 9 Esingizda bo‘lsin, ozgina xamirturush* butun xamirni achitadi! 10 Ishonamanki,
sizlar bu xususda boshqacha fikr qilmaysizlar. Bu ishonchni Rabbimiz Isoning O‘zi
menga berdi. Ammo sizlarning fikringizni chalg‘ituvchi kim bo‘lmasin, jazosini oladi.
11 Birodarlar, bordi–yu, men hamon sunnatni targ‘ib etayotgan bo‘lganimda edi,
quvg‘inlarga duchor bo‘lmagan bo‘lardim. Bunday holda Iso Masihning xochdagi
qurbonligi haqidagi targ‘ibotim hech kimning jahlini chiqarmasdi. 12 Qaniydi, sizlarni
chalg‘itayotganlarning* o‘zlari birato‘la bichilsa!
13 Ey birodarlar, sizlar ozod hayot kechirishga da’vat qilingansizlar. Lekin bu
o‘zingizning xudbin istaklaringizga erk berish degani emas, aksincha, bir–biringizga
muhabbat bilan xizmat qilinglar deganidir. 14 Axir, qonun: “O‘zgani o‘zingizni sevganday
seving”* degan gapda mujassam. 15 Ehtiyot bo‘linglar! Hadeb tishlashib,
g‘ajishavermanglar, bo‘lmasa oxiri bir–biringizni yeb bitirasiz!

Ruh yetakchiligida hayot kechiring

16 Yana shuni aytayin: Ruh yetakchiligida hayot kechiring, shunda xudbin
istaklaringizni qondirmaysiz*. 17 Axir, o‘shanday insoniy istaklar Ruhga qarshi, Ruhning
istaklari esa insoniy xudbin istaklarga qarshidir. Bularning ikkalasi bir–biriga qarshi,
shuning uchun sizlar xohlaganingizni qila olmaysizlar. 18 Ammo Ruh sizni boshqarsa, siz
qonunning amri ostida emassiz.
19 Xudbin istaklarga erk berish quyidagilarni keltirib chiqarishi hammaga ayon:
fahsh–zino, harom–harishlik, axloqiy buzuqlik, 20 butparastlik, folbinligu issiq–sovuq
qilishlar, dushmanlik, janjalkashlik, rashk, jahldorlik, g‘alamislik, nizolaru har xil
guruhlarga bo‘linish, 21 baxillik, ichkilikbozlik*, aysh–ishratga berilish va shularga
o‘xshash ishlar. Sizlarni oldin ogohlantirgandim, yana ogohlantiryapman: bunday
ishlarni qiluvchilar Xudoning Shohligidan bahramand bo‘lmaydi.
22 Ruhning samarasi esa quyidagilardir: muhabbat, sevinch, xotirjamlik, sabr–toqat,
mehribonlik, ezgulik, ishonch, 23 muloyimlik va o‘zini tuta bilish. Bu xislatlarga qarshi
biron qonun yo‘q. 24 Iso Masihga tegishli bo‘lganlar o‘zlarining xudbin istaklarini va
ehtiroslarini xochga mixlab qo‘yganlar. 25 Ruh hayotimiz manbai ekan, endi Ruhning
yetakchiligi ostida hayot kechirishimiz lozim. 26 Shuhratparast bo‘lmaylik, bir–birimizni
gijgijlamaylik, baxillik qilmaylik.

6–BOB

Bir–biringizni qo‘llab–quvvatlanglar

1 Ey birodarlar, deylik, orangizdan birortasi gunoh qilib qo‘yganini bilib qoldingiz.
Sizlar — Ruhning yetakchiligida hayot kechirayotganlar uni muloyimlik bilan to‘g‘ri
yo‘lga solinglar. O‘zingizga ehtiyot bo‘linglar, tag‘in o‘zingiz ham vasvasaga yo‘liqib
qolmanglar. 2 Boshingizga g‘am–tashvish tushganda, bir–biringizni qo‘llab–
quvvatlanglar. Shunday qilsangizlar, Masihning amrlarini bajargan bo‘lasizlar. 3 Axir,
biror kishi, garchi o‘zi hech kim bo‘lmasa–yu, o‘zini muhim deb hisoblasa, o‘zini o‘zi

aldagan bo‘ladi. 4 Har kim o‘z ishini tekshirib ko‘rsin. Shunda u faqat o‘zidan faxrlansa
bo‘ladi, o‘zini boshqalar bilan solishtirishga hojat bo‘lmaydi. 5 Zotan, har kim o‘z
aravasini o‘zi tortishi lozim. 6 Kalomdan ta’lim oluvchi esa bor–yo‘g‘ini ustozi bilan
baham ko‘rishi kerak.
7 O‘zlaringizni aldamanglar! Xudoni laqillatib bo‘lmaydi. Inson nima eksa, shuni o‘rib
oladi. 8 Xudbin istaklarini qondirish uchun urug‘ ekkanlar o‘sha xudbin istaklari tufayli
halokatni o‘rib oladilar. Ruhni mamnun qilish uchun urug‘ ekkanlar esa Ruhdan abadiy
hayot o‘rib oladilar. 9 Shunday ekan, yaxshilik qilishdan charchamaylik. Agar holdan
toyib qolmasak, o‘z vaqtida buning hosilini o‘rib olamiz. 10 Demak, hali fursat bor ekan,
hammaga, ayniqsa, Masih xonadoniga tegishli bo‘lganlarga yaxshilik qilaveraylik.

Muhimi yangidan yaratilishdir

11 Mana qaranglar, endi sizlarga o‘z qo‘lim bilan*, qanday yirik harflar bilan
yozyapman! 12 Sizlarni sunnat bo‘lishga majbur qilayotganlar sirtdan yaxshi taassurot
qoldirmoqchi bo‘lyaptilar. Masihning xochi uchun quvg‘inga duchor bo‘lmaylik, deya
shunday qilyaptilar. 13 Holbuki, sunnatni tatbiq qilayotganlarning o‘zlari ham qonunga*
rioya etmaydilar. Ular faqatgina sizlarning sunnat qilinganingiz bilan maqtanishni
istaydilar. 14 Men esa Rabbimiz Iso Masihning xochidan boshqa hech narsa bilan
maqtanmayman. O‘sha xoch tufayli bu dunyo men uchun o‘lgan, men esa bu dunyo
uchun o‘lganman. 15 Axir, sunnat qilingan yoki qilinmaganlikning hech ahamiyati yo‘q.
Muhimi — yangidan yaratilishdir*. 16 Bu qoidaga ko‘ra, yashayotganlarning hammasiga,
ya’ni Xudoning haqiqiy xalqiga tinchlik va marhamat yor bo‘lsin!
17 Endi hech kim menga aziyat keltirmasin. Axir, tanamdagi chandiqlar* Isoga
tegishli ekanligimni ko‘rsatadigan tamg‘alar–ku!
18 Ey birodarlar, Rabbimiz Iso Masihning inoyati sizlarga yor bo‘lsin. Omin.

IZOHLAR

1:17 *...darhol Arabistonga jo‘nadim. Undan keyin yana Damashqqa qaytdim* — Pavlus Damashqqa ketayotgan paytda Iso unga zohir bo‘lgan (Havoriylar 9:1-19 ga qarang). Shundan keyin Pavlus Damashqdan Arabistonga borgan. U Arabistonning bir qismi bo‘lgan Nabateya shohligida (4:25 izohiga qarang) istiqomat qilgan bo‘lishi mumkin. Nabateya Damashqdan janubda joylashgan bo‘lib, poytaxti Petra shahri edi. Pavlus Arabistonda o‘tkazgan vaqt haqida Yangi Ahdda boshqa hech qanday ma’lumot yo‘q. Pavlus Arabistondan Damashqqa qaytib kelgach, u yerdagi sinagogalarda Iso Masih haqida va’z qila boshlagan (Havoriylar 9:19-22 ga qarang).

1:18 *Uch yildan keyin* — Iso Pavlusga zohir bo‘lgandan keyin o‘tgan uch yil vaqt nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin. Yoki Pavlus Arabistondan Damashqqa qaytib kelgandan keyingi uch yil vaqt nazarda tutilgan bo‘lishi ham mumkin. Shu bobning 17–oyati izohiga qarang.

1:18 *Butrus* — yunoncha matnda *Kifas*, Butrusning oramiycha ismi (Yuhanno 1:42 ga qarang).

1:18 *...Quddusga bordim* — Havoriylar 9:26-30 da aytib o‘tilgan safarga ishora bo‘lsa kerak.

1:19 *Yoqub* — Iso tanlagan o‘n ikki havoriydan biri bo‘lgan Yoqub emas, balki Quddusdagi jamoatning yetakchisi va Isoning ukasi Yoqub nazarda tutilgan (Mark 6:3, Havoriylar 15:13, 21:18 ga qarang).

1:21 *...Suriya va Kilikiya hududlariga bordim* — Suriya va Kilikiya Rim imperiyasiga qarashli bitta viloyatni tashkil qilgan. Pavlus tug‘ilgan Tarsus shahri Kilikiyada joylashgan edi. Pavlus avval Tarsusga, keyin Suriyadagi Antioxiya shahriga ta’lim berish uchun borgan (Havoriylar 9:30, 11:25-26 ga qarang).

2:1 *Barnabo* — ilk jamoatning yetakchisi. Havoriy Pavlus faoliyatining boshida unga hamkor bo‘lgan (Havoriylar 4:36, 9:26-27, 11:25-26, 13:1-3 ga qarang).

2:1 *...yana Quddusga bordim* — Havoriylar 11:27-30 da aytib o‘tilgan safarga ishora bo‘lishi mumkin.

2:1 *Titus* — Pavlusning hamkori va yordamchisi (2 Korinfliklar 8:23, Titus 1:4-5 ga qarang).

2:9 *Yoqub* — 1:19 izohiga qarang.

2:9 *Butrus* — yunoncha matnda *Kifas*, Butrusning oramiycha ismi (Yuhanno 1:42 ga qarang). Shu bobning 11, 14–oyatlarida ham bor.

2:10 *...kambag‘allarga g‘amxo‘rlik qilishni davom ettiringlar...* — Havoriylar 11:27-30 ga qarang.

2:11 *Butrus Antioxiya shahriga kelganda...* — birinchi bo‘lib ko‘p g‘ayriyahudiylar Antioxiya shahrida Iso Masihga imon keltirgan edilar (Havoriylar 11:19-26 ga qarang). Butrus Antioxiyaga Quddusdagi jamoat yo‘lboshchilari yig‘ilishidan oldin (Havoriylar 15:1-31 ga qarang), ammo Pavlus va Barnabo Xushxabar yoyish maqsadida qilgan birinchi safaridan keyin borgan bo‘lsa kerak (Havoriylar 14:26-28 ga qarang).

2:12 *sunnat tarafdori bo‘lganlar* — Iso Masihga ishongan yahudiylar bo‘lib, ular Muso qonunlariga, ayniqsa sunnat haqidagi amriga qat’iy amal qilishardi. Sunnat Xudoning Ibrohim va uning avlodi bilan qilgan ahd belgisi edi (Ibtido 17:9-14 ga qarang). Sunnat yahudiylarning Xudoga sodiqligini va Uning tanlagan xalqiga tegishli ekanini ko‘rsatadi.

2:16 *qonun* — Eski Ahdga, xususan, Tavrotga ishora.

2:17 *g‘ayriyahudiylar qatori gunohkor ekanligimiz* — yahudiylar hamma g‘ayriyahudiylarni gunohkor deb hisoblardilar, chunki g‘ayriyahudiylar Tavrot qonunlariga rioya qilmasdilar. Shuning uchun yahudiylarning nazarida Tavrot qonunlariga rioya qilmay qo‘ygan har qanday yahudiy ham g‘ayriyahudiylar kabi gunohkor bo‘lib qolardi.

2:18 *...men yana qonunbuzar bo‘lib qolaman* — bu so‘zlarning mohiyati shundaki, agar odam Tavrot qonunlariga qayta rioya qilishni boshlasa, u yana qonunbuzar bo‘lib qoladi, chunki hech kim qonunlarni to‘liq bajara olmaydi (3:10-11, 5:3 ga va Yoqub 2:10, Rimliklar 4:15 ga qarang).

2:19 *Axir...qonun uchun o‘lganman* — Rimliklar 7:1-6 ga qarang.

3:1 *Kim sizlarni sehrlab qo‘ydi?* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *Haqiqatga bo‘ysunmasligingiz uchun sizlarni kim sehrlab qo‘ydi?*

3:2 *qonun* — 2:16 izohiga qarang.

3:6 Ibtido 15:6 ga qarang.

3:8 Ibtido 12:3 ga qarang.

3:10 Muallif bu o‘rinda Qonunlar 27:26 ning qadimiy yunoncha tarjimasidan foydalangan.

3:11 *...solih inson imon tufayli hayotga ega bo‘ladi* — Xabaqquq 2:4 ga qarang.

3:12 *...qonunda...va’da qilingan* — Levilar 18:5 ga qarang.

3:13 Qonunlar 21:23 ga qarang.

3:16 *zurriyotlaring* — yunoncha so‘zning so‘zma–so‘z tarjimasi. Yunon tilida ham, o‘zbek tilida ham, odatda bu so‘z ko‘plik shaklida ishlatilmaydi.

3:16 *“Sening zurriyotingga”* — Ibtido 12:7 ga qarang. Bu o‘rinda ishlatilgan yunoncha so‘z, Ibtido kitobidagi ibroniycha so‘z singari, Ibrohimning butun avlodiga yoki avlodidan kelib chiqadigan zurriyotining biriga ishora qilishi mumkin.

3:17 *430 yil* — Chiqish 12:40-41 ga qarang.

3:19 *Ibrohimning va’da qilingan Zurriyoti* — ya’ni Iso Masih.

3:19 *farishtalar tomonidan* — Qonunlar 33:2-4, Havoriylar 7:53, Ibroniylar 2:2 ga qarang.

3:19 *vositachi* — ya’ni Muso.

3:22 *...butun borliq gunohning tutqunidir* — Rimliklar 3:9-20 ga qarang.

3:28 *yunon* — ya’ni g‘ayriyahudiy. O‘sha davrda *yunon* so‘zi millati yunon bo‘lgan odamga nisbatan ham, yunon tilida gapirib, yunon urf–odatlariga rioya qiladigan odamga nisbatan ham ishlatilgan.

4:3 *Xurofot kuchlari* — yana Kolosaliklar 2:8, 20-23 ga qarang.

4:4 *qonun* — 2:16 izohiga qarang.

4:6 *"Otajon"* — yunoncha matnda *"Abba, Ota"*. Abba so‘zi oramiychada ota deganidir. Xudo imonlilar bilan nihoyatda yaqin munosabatda bo‘lgani uchun, ular Xudoga "Ota" deb murojaat qiladilar. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi XUDONING NOMLARI iborasi ostida berilgan OTA so‘ziga qarang.

4:17 *Ba’zi birovlar sizlarni o‘zlariga og‘dirib olishga tirishmoqdalar* — 1:6-9, 3:1-3 ga qarang.

4:22 *cho‘ri* — ya’ni Hojar, Ismoilning onasi (Ibtido 16:1-15 ga qarang).

4:22 *ozod ayol* — ya’ni Sora, Is’hoqning onasi (Ibtido 18:10-14, 21:1-3 ga qarang).

4:24 *Xudoning ikki ahdi* — Xudo Muso orqali bergan ahdga (Chiqish 19:1-8, 24:1-8 ga qarang) hamda Ibrohimga bergan ahdga ishora (Ibtido 12:1-7 ga qarang). Birinchisiga muvofiq, inson Musoning qonuniga itoat qilib yashaydi. Ikkinchisiga muvofiq esa, inson imon va Muqaddas Ruhning qudrati bilan yashaydi (3:2-3, 15-18 ga qarang).

4:25 *Arabistondagi Sinay tog‘ini* — o‘sha davrlarda Nabateya shohligi Arabiston deb ham atalar edi, ammo Arabistonning bir qismi edi. Bu shohlik Sinay yarim orolini o‘z ichiga olgan edi.

4:27 Ishayo 54:1 ga qarang.

4:29 *tabiiy yo‘l bilan tug‘ilgan o‘g‘il* — ya’ni Ismoil.

4:29 *Ruhning kuchi bilan tug‘ilgan o‘g‘il* — ya’ni Is’hoq.

4:30 Ibtido 21:10 ga qarang.

5:1 *bo‘yinturuq* — itoatkorlik va bo‘ysunish ramzi.

5:2 *…agar sizlar sunnat qilinsangiz…* — Pavlus bu o‘rinda Xudoga manzur bo‘lish uchun sunnat qilinish kerak, deb o‘ylagan odamlarga murojaat qilyapti. Pavlusning o‘zi sunnatga qarshi bo‘lmagan, ammo najot topish uchun sunnat qilinish kerak, degan ta’limotga qat’iyan qarshi edi (Havoriylar 15:1-2 ga qarang).

5:3 *qonun* — 2:16 izohiga qarang.

5:9 *xamirturush* — majoziy ma’noda ishlatilgan bo‘lib, odatda boshqalarga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan ta’limotlar va xulq–atvor nazarda tutilgan.

5:12 *sizlarni chalg‘itayotganlar* — 1:6-9, 3:1-3, 4:17 ga qarang.

5:14 Levilar 19:18 ga qarang.

5:16 *…Ruh yetakchiligida hayot kechiring, shunda xudbin istaklaringizni qondirmaysiz* — Rimliklar 8:5-13 ga qarang.

5:21 *…baxillik, ichkilikbozlik…* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *baxillik, qotillik, ichkilikbozlik*.

6:11 *…o‘z qo‘lim bilan…* — 1 Korinfliklar 16:21 izohiga qarang.

6:13 *qonun* — 2:16 izohiga qarang.

6:15 *yangidan yaratilish* — 2 Korinfliklar 5:17 ga qarang.

6:17 *tanamdagi chandiqlar* — Pavlusning Iso Masihga bag‘ishlangan havoriy sifatida

qilgan xizmati jarayonida yaralangandan qolgan chandiqlariga ishora (misol uchun, Havoriylar 14:19 ga qarang).

PAVLUSNING
EFESLIKLARGA
MAKTUBI

Kirish

Mazkur maktub muallifi havoriy Pavlusdir. Pavlus bu maktubini qamoqda bo‘lgan paytda* Efes shahridagi imonlilar jamoatiga yozgan. Efes shahri Rim imperiyasidagi Asiya viloyatining markazi bo‘lib, muhim ahamiyatga ega edi. Bu bandargoh shahar hozirgi Turkiyaning g‘arbida, Egey dengizi bo‘yida joylashgan. Pavlus Xushxabarni yoyish va ta’lim berish maqsadida bir necha marta Efesga borgan, u yerda ikki yil yashagan.

Ushbu maktubda yangi ahd ilohiyotining asoslari batafsil va izchil tarzda bayon qilinadi. Pavlus bu maktubida imonlilarga Masihda pinhon bo‘lgan aql bovar qilmas ilohiy boylik haqida yozadi, masihiylarni kundalik hayotlarida o‘sha ruhiy manbadan foydalanishga chaqiradi. Biz savob ishlarimiz tufayli emas, inoyat tufayli najot topganimizni, Xudoga hamdu sanolar aytish uchun yaralganimizni bizga eslatadi. Bularning hammasida Xudo yagona maqsadni ko‘zlaydi: U yeru osmondagi bor mavjudotni Masihning hokimiyati ostiga birlashtirmoqchi ekanini aytadi (1:10 ga qarang). Xudo bu rejasini amalga oshirishni masihiylar jamoatidan boshlaydi. Iso Masihning to‘kilgan qoni tufayli jamoat Xudo bilan yarashib, yakdillikka erishadi. Jamoatning yakdilligi orqali Xudo butun borliqqa O‘z donoligiyu ulug‘vorligini namoyon qiladi. Maktubda ishlatilgan metaforalar Xudoning jamoati Masihga tegishli ekanini ko‘rsatadi. Masalan, jamoat bir tana bo‘lsa, Masih uning boshidir, jamoat bino bo‘lsa, Masih uning tamal toshidir.

Maktubning dastlabki qismida (1-3–boblar) samoda biz uchun saqlangan ruhiy barakalar haqida yozilgan. Xudo O‘z xalqini tanlagani, Iso Masih orqali ularni kechirib, gunohlaridan xalos etgani, qut–barakalarga kafil sifatida ularga Muqaddas Ruhni bergani bayon etiladi. Pavlus masihiylarni duo qilib, ular uchun Xudoga yolvoradi. Uning nihoyatda go‘zal va chuqur mazmunga ega bo‘lgan bu mumtoz ibodatlari odamlarga yod bo‘lib ketgan (1:15-23, 3:14-21 ga qarang).

Maktubning so‘nggi qismida (4-6–boblar) Pavlus imonlilarga nasihatlar qiladi. Ularni Masihga munosib hayot kechirishga, Xudoning farzandi degan nomga loyiq tarzda yashashga undaydi. Bir vaqtlar ular zulmatga g‘arq bo‘lgan edilar, endi esa ular nurga to‘la insonlar kabi yashashi lozim. Mana shu nur ularning hayot tarzida aks etib turishi kerak. Shuningdek, Pavlus er–xotinlik munosabatlari, ota–ona va farzandlar, xo‘jayin va qul munosabatlari haqida ta’lim beradi. Pavlus mazkur maktubini yakunlar ekan, yovuz ruhiy kuchlarga qarshi kurashish haqida so‘z yuritadi. Masihiylarni Xudo bergan qurol–aslahalar bilan qurollanib, iblisning hiylalariga qarshi turishga chaqiradi. Ularni har qanday sharoitda Muqaddas Ruhga tayanib duo–ibodat qilishga, hushyor va sabotli bo‘lishga da’vat qiladi.

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

1–BOB

Duoyi salom

1 Xudoning irodasi bilan Iso Masihning havoriysi bo‘lgan men — Pavlusdan Iso
Masihga sodiq bo‘lgan* Efes shahridagi Xudoning azizlariga salom! 2 Otamiz Xudo va
Rabbimiz Iso Masih sizlarga inoyat va tinchlik ato qilsin.

Xudoning ilohiy rejasi

3 Rabbimiz Iso Masihning Otasi Xudoga hamdu sanolar bo‘lsin. U samodagi barcha
ruhiy barakalarni Masih orqali bizlarga berdi. 4 Masihga tegishli bo‘lishimiz uchun Xudo
bizni dunyo yaratilishidan oldin tanladi. Endi biz Xudoning oldida muqaddas va
benuqson, bir–birimizga mehr bog‘lagan insonlar bo‘la olamiz. 5 Xudo* bizni Iso Masih
orqali O‘ziga farzand qilib olishni azaldanoq qaror qilgan edi. Xudoning xohish–irodasi
shu bo‘lib, bundan U huzur–halovat topdi. 6 Xudo O‘zining suyukli O‘g‘li orqali bizga
buyuk inoyat ko‘rsatgani uchun Unga hamdu sanolar bo‘lsin.
7-8 Masihning to‘kilgan qoni orqali Xudo bizni kechirib, gunohlarimizdan ozod qildi.
Shunday qilib, Xudo bizning hayotimizni to‘ldirgan inoyati qanchalik boy ekanligini
ko‘rsatdi. U bizga donoligu aql–idrok ato etdi. 9 O‘z irodasining sirini* ma’lum qildi. Bu
irodasi Iso Masih orqali bajo bo‘lishini Xudo oldindan rejalashtirgan edi va bundan U
huzur–halovat topdi. 10 Xudo bu rejasini O‘zi belgilagan vaqtda to‘la amalga oshirib, yeru
osmondagi bor mavjudotni Masihning hokimiyati ostiga birlashtiradi. 11 Biz Masih orqali
Xudoning xalqi bo‘ldik*. Bu Xudoning azaldan belgilagan rejasi bo‘yicha amalga oshdi.
Axir, Xudo har bir narsani O‘z xohish–irodasi bo‘yicha amalga oshiradi.
12 Shunday ekan, biz hammamiz — Masihga umid bog‘laganlar Xudoga shon–shuhrat
keltirish uchun yashashimiz lozim. 13 Sizlar haqiqat kalomi, ya’ni najot keltirgan
Xushxabarni eshitgan edingiz. Shu tufayli Masihga imon keltirgan edingiz. Xudo va’da
qilgan Muqaddas Ruhini sizlarga berib, O‘ziga tegishli ekanligingizni tasdiqladi.
14 Muqaddas Ruh biz kelajakda oladigan qut–barakalarga kafil sifatida berildi. Ha, vaqti
kelib*, Xudo O‘ziga tegishli bo‘lganlarni butunlay ozod qiladi. Shularning hammasi
Xudoga shon–shuhrat keltiradi.

Shukrona ibodati

15 Rabbimiz Isoga bo‘lgan imoningiz va Xudoning aziz xalqiga bo‘lgan mehr–
muhabbatingiz haqida eshitganimdan beri, 16 sizlar uchun ibodat qilganimda, tinmay
Xudoga shukurlar aytaman. 17 Rabbimiz Iso Masihning Xudosi, ulug‘ Otamiz, O‘zini
tanib–bilishingiz uchun Muqaddas Ruh orqali sizga donolik va aql–idrok ato qilsin.
18 Xudo sizlarning qalbingizni nurga to‘ldirsin, toki Xudo sizlarni da’vat qilib, sizlarga
qanday umid berganligini, Xudoning xalqi U uchun naqadar boy mulk* ekanligini
tushunib olinglar. 19 Xudoning biz — imonlilarga ko‘rsatgan tengi yo‘q qudrati naqadar
buyukligini ham bilib oling. Mana shu buyuk qudrati bilan 20 Xudo Masihni o‘likdan
tiriltirdi va samoda Uni O‘zining o‘ng tomoniga o‘tirg‘izdi*. 21 Isoni Xudo u dunyoyu bu
dunyodagi har bir hokimiyat va hukmronlik, har qanday kuch va saltanat, har bir
mavjudotdan ustun qildi. 22 Butun borliqni Isoning oyoqlari ostiga tobe qildi. Uni butun
borliqdan yuqori qo‘yib, imonlilar jamoatiga bosh qildi. 23 Imonlilar jamoati Masihning
tanasidir. Borliqni har jihatdan butun qiladigan Masih jamoatni barkamol qiladi.

2–BOB

Xudoning inoyati tufayli hayotga erishish

1 Sizlar bir vaqtlar gunohlaru ayblaringiz tufayli ruhan o‘lik edingizlar. 2 Sizlar bu
dunyoning odatlari bo‘yicha, yovuz ruhiy kuchlarning hokimi bo‘lgan shaytonga
bo‘ysunib, gunohga botib yashardingiz. Xudoga itoat qilmay yashayotganlarning
yuraklarida amal qilayotgan shaytondir. 3 Biz ham bir vaqtlar xudbin istaklarimizni
qondirib yashar edik. Tana ehtiroslariga va bema’ni o‘y–xayollarga berilib yashaydigan,
barcha odamzod kabi, tabiatan Xudoning qahr–g‘azabiga loyiq bo‘lgan itoatsiz insonlar
edik. 4 Ammo mehr–shafqatga boy Xudo O‘zining bizga bo‘lgan buyuk muhabbatini
quyidagicha ko‘rsatdi: 5 garchi biz gunohlarimiz tufayli ruhan o‘lik bo‘lsak ham, Xudo
bizni Masih bilan birga tiriltirdi. Biz Xudoning inoyati tufayli qutqarilganmiz. 6 Xudo
bizni Masih bilan birga tiriltirdi va bizga samoda U bilan birga joy berdi. Bular Iso Masih
tufayli amalga oshdi. 7 Xudoning inoyati behad mo‘l ekanligi to abad namoyon bo‘lishi
uchun, U bizga Iso Masih orqali mehr–shafqat ko‘rsatdi. 8 Axir, sizlar Xudodan inoyat
topib, imon orqali najot topgansiz. Bu Xudoning in’omidir, sizning yutug‘ingiz emas.
9 Yana hech kim: “Men savob ishlarim tufayli qutulganman”, deb maqtanmasin. 10 Axir,
biz Xudoning ijodimiz. Xudo bizni xayrli ishlar qilishimiz uchun Iso Masih orqali yaratdi,
bu ishlarni biz uchun azaldanoq tayyorlab qo‘ygan edi.

Iso Masih orqali xalqlar birlashadi

11 Esingizda bo‘lsin, sunnat qilingan yahudiylar* bir vaqtlar siz — g‘ayriyahudiy
bo‘lganlarni “sunnatsiz”* deb atardilar. Vaholanki, yahudiylarning sunnati faqatgina
jismoniy sunnat edi. 12 O‘sha paytda sizlar Masihni bilmas edingizlar, Isroil xalqiga
tegishli emasdingiz. Xudoning Isroil xalqi bilan tuzgan ahdlariga* va bergan va’dalariga
begona bo‘lib, bu dunyoda umidsiz va Xudosiz yashar edingiz. 13 Sizlar oldin Xudodan
uzoq edingiz, endi esa Iso Masih orqali, Uning to‘kilgan qoni tufayli Xudoga
yaqinlashdingiz.

14-15 Masihning O‘zi bizning tinchlik manbaimizdir. U O‘z tanasini fido qilib,
yahudiylar va g‘ayriyahudiylarni birlashtirdi, ularning orasidagi adovat devorini qulatdi.
Iso Masih yahudiylarga berilgan qonunni va uning amrlariyu qoidalarini bekor qildi.
Masih tufayli g‘ayriyahudiylar bilan yahudiylar birlashib, yangi bir xalq bo‘ldilar,
shunday qilib Masih tinchlik o‘rnatdi. 16 Xochdagi o‘limi orqali Masih g‘ayriyahudiylarni
ham, yahudiylarni ham Xudo bilan yarashtirdi–da, ularning orasidagi adovatni yo‘q
qildi. 17 Masih kelib, sizlarga — oldin Xudodan uzoq bo‘lganlarga ham, Xudoga yaqin
bo‘lganlarga ham tinchlik Xushxabarini e’lon qildi. 18 Masih tufayli endi hammamiz bir
Ruh orqali Otamiz Xudoning huzuriga kira olamiz.

19 Demak, sizlar endi begona ham, kelgindi ham emassizlar, balki Xudoning aziz xalqi
qatoridasiz, Uning xonadoni a’zosi bo‘ldingizlar. 20 Sizlar xuddi bir binodaysizlar. Bu
binoning asosi havoriylaru payg‘ambarlardir*. Binoning tamal toshi* esa Iso Masihning
O‘zidir. 21 Bu imorat Rabbimiz Iso Masih orqali bir bo‘lib, yuksalib boradi va Unga
bag‘ishlangan muqaddas ma’bad bo‘ladi. 22 Iso Masihga tegishli bo‘lganingiz uchun sizlar
ham bu imoratning bir qismisiz. Bu imoratni Xudoning Ruhi O‘ziga maskan qilib oladi.

3–BOB

Xudo sirli rejasini ayon qiladi

1 Mana, Iso Masih haqi siz — g‘ayriyahudiylarga qilgan xizmatim sababli mahbus* bo‘lganman. 2 Xudo O‘z inoyatini sizlarga yetkazish vazifasini menga topshirdi. Sizlar albatta bu haqda eshitgansizlar. 3 Yuqorida qisqacha yozganimday, Xudo bu sirni menga vahiy orqali ma’lum qildi. 4 Sizlar yozganlarimni o‘qib, Masih haqidagi sirni qanday fahmlaganimni tushunib olasizlar. 5 Bu sir oldingi nasllarga ayon qilinmagan edi. Endi esa Muqaddas Ruh orqali Xudoning muqaddas havoriylari va payg‘ambarlariga* ayon qilindi. 6 Bu sirning mohiyati quyidagichadir: g‘ayriyahudiylar ham Xushxabarga ishonib, Iso Masih orqali Xudo O‘z xalqiga ato qiladigan barakalarga sherik bo‘ladilar. Ular bilan birga bir tana a’zolari* bo‘lib, Xudoning O‘z xalqiga bergan va’dasidan bahramand bo‘ladilar.

7 Xushxabarni tarqatish xizmati menga Xudoning inoyati bo‘yicha topshirildi. Bu inoyatni Xudo menga O‘zining kuch–qudrati orqali berdi. 8 Men Xudoning azizlari orasida eng arzimagani edim. Masihning aql bovar qilmas boyligi haqidagi Xushxabarni g‘ayriyahudiylarga yetkazishim uchun menga Xudoning inoyati berildi. 9 Xudoning sirli rejasini endi hammaga oshkor qilish vazifasi menga yuklandi. Butun borliqni* yaratgan Xudo bu sirni asrlar davomida pinhon tutgan edi. 10 O‘zining ko‘p qirrali donoligi imonlilar jamoati orqali samoviy kuchlaru saltanatlarga ma’lum bo‘lishi uchun Xudo shunday qildi. 11 Xudoning Rabbimiz Iso Masih orqali ro‘yobga chiqargan azaliy maqsadi shu edi.

12 Biz Iso Masih tufayli va Unga bo‘lgan imonimiz tufayli Xudoning huzuriga dadillik va to‘la jasorat bilan yaqinlashish imkoniga egamiz. 13 Shunday ekan, sizlardan o‘tinaman, mening azob–uqubatlarimni deb, ruhingiz hech tushmasin. Aksincha, sizlar uchun chekkan azob–uqubatlarim bilan faxrlaninglar.

Pavlusning ibodati

14 Yuqorida aytib o‘tganlarim haqida o‘ylaganimda, samoviy Otamiz* oldida tiz cho‘kib, ibodat qilaman. 15 Yer yuzidagi va osmonu falakdagi har bir jonzotning hayot manbai samoviy Otadir. 16 Mening toat–ibodatlarim quyidagichadir: Xudo O‘zining ulug‘vor boyligi bilan sizlarga kuch–qudrat berib, O‘z Ruhi bilan ichki borlig‘ingizni baquvvat qilsin. 17 Imoningiz orqali Masih yuragingizdan joy olsin. 18-19 Sizlar ildizi chuqur daraxtday bo‘ling, Xudoning sevgisi sizlarni barqaror qilsin. Xudoning barcha azizlari bilan birga, Masihning aql bovar qilmas sevgisi qanchalik keng, qanchalik cheksiz, qanchalik yuksak va teran ekanligini to‘la anglab, bilib olinglar. Shunda hayotingiz Xudoning kamolotiga to‘lib–toshadi.

20 Xudo hayotimizda amal qilayotgan qudrati bilan biz so‘ragan yoki tasavvur qilganlarimizni va hatto xayolimizga kelmaganlarni ham bajarishga qodirdir.
21 Imonlilar jamoati va Iso Masih orqali Xudoga nasllar osha to abad shon–sharaflar bo‘lsin! Omin.

4–BOB

Imonlilarning birligi va yangi hayoti

1 Rabbimiz Iso haqi mahbus* bo‘lgan men — Pavlus sizlardan o‘tinib so‘rayman:
Xudo sizlarni O‘ziga da’vat qilganini yoddan chiqarmay, shu da’vatga munosib tarzda
yashanglar. 2 Doimo kamtar va muloyim bo‘linglar, mehr–muhabbat bilan bir–biringizga
nisbatan sabr–toqatli bo‘linglar. 3 O‘zaro tinch–totuv yashab, Muqaddas Ruh ato qilgan
birdamlikni saqlashga jon kuydiringlar. 4 Hammamiz bir tananing a’zolarimiz*,
qalbimizdagi Muqaddas Ruh ham birdir. Shuningdek, Xudo bizni da’vat qilib,
hammamizga bergan umid ham birdir. 5 Rabbimiz bir, imonimiz ham birdir, bir
maqsadda suvga cho‘mdirilganmiz. 6 Barchamizning Otamiz Xudo birdir. U
hammamizdan ustun bo‘lib, hammamiz orqali O‘z irodasini bajo qiladi. U
hammamizning oramizdadir. 7 Masih O‘z inoyatiga ko‘ra, har birimizga turli xil in’omlar
bergan. 8 Mana, Muqaddas bitiklarda quyidagicha yozilgan:

> “Yuksaklarga chiqdi U,
> Asirlarni ortidan ergashtirdi.
> Insonlarga hadyalar berdi.”*

9 U yuksaklarga chiqdi degan so‘zlar nimani bildiradi? U oldin pastga — yer yuziga
tushgandan boshqa nimani bildirishi mumkin?! 10 Pastga tushgan Zot, koinotni har
jihatdan butun qilay deb, falak toqidan ham yuqoriroqqa chiqdi.
11 Masih ba’zilarni havoriy, ba’zilarni esa payg‘ambar, ba’zilarni Xushxabar voizi,
yana boshqalarni jamoatlarning cho‘ponlariyu ustozlari qilib tayinladi, 12 toki ular
Xudoning aziz xalqini xizmat qilishga tayyorlasinlar. Shunda Masihning tanasi, ya’ni
jamoat imonda mustahkam turadi. 13 Buning natijasida hammamiz imonda yakdil,
Xudoning O‘g‘li Masihni tanib–biladigan, Uning kamoliga erishgan yetuk odamlar
bo‘lamiz. 14 Shunda biz norasida go‘daklarga o‘xshamaymiz, shamol esgan tomonga
egiladigan novdaday bo‘lmaymiz. Har xil ta’limotlar va quv odamlarning hiylayu
ayyorliklariga laqqa tushavermaymiz. 15 Kelinglar, mehr–muhabbat bilan haqiqatni
aytib, jamoatning boshi bo‘lgan Masihga o‘xshab har jihatdan yetuk insonlar bo‘laylik.
16 Uning boshchiligida butun badan payu bo‘g‘inlar yordamida o‘zaro ulanadi va
birikadi. Har bir a’zo o‘z vazifasini bajarar ekan, butun badan o‘sib boradi va mehr–
muhabbat tufayli baquvvat bo‘ladi.
17 Shunday ekan, Rabbimiz Isoning nomidan qat’iy tayinlab, sizlarga aytaman: endi
xudosiz odamlarday yashamanglar, ular singari behuda o‘y–xayollarga berilmanglar.
18 Ularning onglarini zulmat qoplagan, ular Xudo beradigan yangi hayotga begonadirlar,
chunki ular bag‘ri tosh bo‘lib, jaholatda qolganlar. 19 Ular har qanday or–nomus
tuyg‘usini yo‘qotib, fisqu fujurga berilganlar, har xil iflos ishlarni ishtiyoq bilan qiladilar.
20 Ammo sizlar Masihdan bunday ishlarni o‘rganmagansiz. 21 Sizlar Masihning so‘zlarini
eshitib, Uning ta’limotini olgansizlar, chunki haqiqat Masihda jamdir. 22 Oldingi yashash
tarzingizga tobe bo‘lmang, eski o‘zligingizdan voz keching, chunki u aldovchi ehtiroslar
tufayli buzilib ketgan. 23 Yangichasiga fikr–zikr qiladigan bo‘linglar. 24 Xudoning suratida
yaratilgan, haqiqiy solihlik va muqaddaslikdan iborat bo‘lgan yangi tabiatga
burkaninglar.

Yangi hayot uchun yo‘l–yo‘riqlar

25 Endi yolg‘on gapirishni bas qilib, har biringiz o‘z yaqiningizga haqiqatni aytinglar,
axir, hammamiz bir tananing a’zolarimiz–ku. 26 Hatto g‘azablanganingizda ham gunoh
qilmanglar*. Quyosh botguncha jahldan tushinglar. 27 Iblisga fursat bermanglar. 28 Oldin
o‘g‘ri bo‘lgan endi o‘g‘rilik qilmasin, balki ishlasin, o‘z qo‘llari bilan mehnat qilsin.
Shunda muhtojlarga ham topgan–tutganidan yordam bera oladi. 29 Og‘zingizdan hech
qanday yaramas so‘z chiqmasin. Lekin tinglovchilarning ehtiyojiga ko‘ra, kerakli
gaplarni aytib, ularga dalda bering, shunda so‘zlaringiz ularga foyda keltiradi.
30 Xudoning Muqaddas Ruhini xafa qilmanglar, chunki Muqaddas Ruh sizlarning
Xudoga tegishli ekaningizning hamda bir kun kelib*, butunlay ozod bo‘lishingizning
dalilidir. 31 Har qanday gina–kudurat, qahru g‘azab, janjalkashlik, g‘iybatchilikni hamda
boshqa har xil yomonliklarni o‘zingizdan soqit qilinglar. 32 Bir–biringizga nisbatan
ko‘ngilchan va mehr–shafqatli bo‘linglar. Xudo sizlarni Masih orqali kechirganday, sizlar
ham bir–biringizni kechiringlar.

5–BOB

1 Xudoning sevikli farzandlari ekansiz, endi Xudodan o‘rnak olinglar. 2 Masih bizni
yaxshi ko‘rib, biz uchun O‘zini fido qildi va shu yo‘sin Xudoga ma’qul keladigan
qurbonlik bo‘ldi. Sizlar ham Iso Masihga o‘xshab, xuddi shunday mehr–muhabbat bilan
yashanglar. 3 Sizlarning orangizda fahsh, zinokorlik, ifloslik yoki xasisligu ochko‘zlik
hatto tilga ham olinmasin. Bular Xudoning azizlariga munosib emas. 4 Shuningdek,
orangizda beadablik, nojo‘ya so‘zlaru qo‘pol hazillar ham bo‘lmasin, chunki bunday
qiliqlar sizlarga to‘g‘ri kelmaydi. Yaxshisi, Xudoga shukur qilinglar. 5 Shuni bilib
qo‘yinglarki, hech bir fahshboz, iflos yoki xasisu ochko‘z inson Masihning va Xudoning
Shohligidan bahramand bo‘lmaydi, chunki aytib o‘tilganlarning hammasi butparastlik
bilan tengdir.
6 O‘shanday gunohlarni qilishga bahona izlaganlar sizlarni quruq gaplar bilan
aldamasin, chunki Xudoning qahr–g‘azabi Unga itoatsiz bandalarning boshiga tushadi.
7 Shuning uchun ularga sherik bo‘lmanglar. 8 Bir vaqtlar sizlar zulmatga to‘la edingiz,
endi esa Rabbimiz Isoga tegishli bo‘lganingiz uchun nurga to‘ldingiz. Shunday ekan,
nurga to‘la insonlar kabi yashanglar. 9 Axir, har qanday ezgulik, solihlik va haqiqat
nurning* samarasidir. 10 Rabbimizga nima maqbul ekanligini bilishga tirishinglar.
11 Zulmatning besamara ishlarida ishtirok etmanglar, aksincha, ularni fosh etinglar.
12 Maxfiy ravishda qilinadigan o‘sha ishlar haqida gapirish ham uyatdir. 13 Ammo nur
porlaganda hamma narsa fosh bo‘lib, ochiq–oshkor ko‘rinadi. Axir, nur hamma narsani
ochiq–oydin namoyon qiladi–ku! 14 Mana shu sababdan shunday deymiz:

> “Ey uxlayotgan, tur!
> O‘likdan tiril!
> Masih senga nur sochar*.”

15 Shunday qilib, qay tarzda yashayotganingizga diqqat qilinglar. Nodonlar kabi
emas, balki donolarday hayot kechiringlar. 16 Fursatni g‘animat bilinglar, chunki biz
yashayotgan bu kunlar yomonlikka to‘la. 17 Shuning uchun beaql bo‘lmanglar, balki
Rabbimiz Isoning irodasi nima ekanligini anglashga harakat qilinglar. 18 Sharob ichib

mast bo‘lmanglar, chunki bu buzuqlikka olib boradi. Aksincha, Muqaddas Ruhga to‘lib–
toshinglar. 19 Birga yig‘ilganingizda sanolar, ruhiy madhiyalaru qo‘shiqlar kuylanglar.
Musiqa asboblariyu xonishlaringiz bilan chin yurakdan Rabbimizga hamdlar aytinglar.
20 Har doim, har bir narsa uchun Rabbimiz Iso Masih nomi bilan Otamiz Xudoga shukur
qilinglar.

Oilaviy munosabatlar haqida nasihatlar

21 Iso Masihni* izzat–hurmat qilganingiz uchun bir–biringizga bo‘ysuninglar. 22 Ey
xotinlar, siz Rabbimiz Isoga qanday bo‘ysunsangiz, erlaringizga ham shunday
bo‘ysuning. 23 Masih imonlilar jamoatining boshi bo‘lgani kabi, er ham xotinning
boshidir. Masih O‘z tanasi bo‘lgan jamoatning Najotkoridir. 24 Jamoat Masihga qanday
tobe bo‘lsa, xotinlar ham har jihatdan o‘z erlariga shunday tobe bo‘lishlari kerak. 25 Ey
erlar, Masih jamoatni yaxshi ko‘rib, O‘zini jamoat uchun fido qilganiday, sizlar ham
xotinlaringizni shunday yaxshi ko‘ringlar. 26 Masih jamoatni suv* va Xudoning kalomi
orqali poklab*, muqaddas qilish niyatida O‘zini fido qildi. 27 Jamoatni O‘z huzuriga
keltirganda, jamoat har qanday g‘ubor, ajin va dog‘dan xoli bo‘lib, ulug‘vor, muqaddas va
benuqson bo‘lishi uchun Masih O‘z jonini ayamadi. 28 Erlar ham o‘z xotinlarini o‘z
tanalarini sevganday sevishlari kerak. O‘z xotinini sevgan erkak o‘zini sevgan bo‘ladi.
29 Hech kim hech qachon o‘z tanasini yomon ko‘rmaydi. Aksincha, uni oziqlantirib,
parvarish qiladi. Masih ham O‘z jamoatini xuddi shunday oziqlantirib, parvarish qiladi.
30 Biz Masih tanasining a’zolarimiz*. 31 Muqaddas bitiklarda shunday yozilgan: “Shuning
uchun erkak kishi ota–onasidan bo‘lak bo‘lib, xotiniga bog‘lanib qoladi, ikkalasi bir tan
bo‘ladilar.”* 32 Bu buyuk sirdir, endi bu sir Masih hamda jamoatga ham taalluqlidir.
33 Xullasi kalom, har bir er o‘z xotinini o‘zini sevganday sevsin. Xotin ham erini hurmat
qilsin.

6–BOB

1 Ey farzandlar, Rabbimiz Isoga tegishli bo‘lganingiz uchun ota–onangizga itoat
qilinglar, chunki shunday qilish to‘g‘ridir. 2-3 Axir, Xudo shunday amr qilgan: “Ota–
onangizni hurmat qiling. O‘shanda yer yuzida umringiz uzoq bo‘lib, baxtiyor
yashaysiz.”* Va’da qo‘shib berilgan birinchi amr o‘sha amrdir. 4 Ey otalar,
farzandlaringizning g‘ashiga tegmang. Ularni Rabbimizning ta’lim–tarbiyasi bilan
o‘stiring.

5 Ey qullar, Masihga chuqur izzat–ehtirom bilan, chin yurakdan itoat qilganingiz kabi,
xo‘jayinlaringizga ham shunday itoat qilinglar. 6 Faqatgina insonlarni mamnun qilib,
xo‘ja ko‘rsinga xizmat qiladigan odamlarga o‘xshamasdan, Masihning qullari kabi, chin
ko‘ngildan Xudoning irodasini bajaringlar. 7 Insonlarga emas, balki Rabbimiz Isoga
xizmat qilayotgandek, bajonu dil xizmat qilinglar. 8 Esingizda tuting: xoh qul, xoh erkin
bo‘lsin, har bir kishi qilgan yaxshiligiga yarasha mukofotni Rabbimizdan oladi.

9 Ey xo‘jayinlar, sizlar ham qullaringizga yaxshi muomalada bo‘linglar. Ularga do‘q–
po‘pisa qilishni bas qilinglar, chunki bilasizlar–ku, ularning ham, sizlarning ham
Xo‘jayiningiz samoda, U tarafkashlik qilmaydi.

Yovuzlikka qarshi kurash

10 Va nihoyat, Rabbimiz Iso sizning qudrat manbaingiz bo‘lsin, Uning buyuk qudrati
sizlarni baquvvat qilsin. 11 Iblisning hiylalariga qarshi tura olishingiz uchun Xudo bergan

barcha qurol–aslahalar bilan qurollaning. 12 Axir, bizning kurashimiz insonlarga qarshi
emas, balki samoviy olamdagi yovuz ruhiy kuchlarga, ruhiy hokimiyat va hukmronlikka
hamda bu qorong‘i dunyoni boshqarayotgan ruhiy hukmronlarga qarshidir. 13 Shu
sababdan, Xudoning qurol–aslahalari bilan qurollaning, deb aytyapman. Shunda
yovuzlikka to‘la kunlarda mahkam tura olasiz, qurollanib tayyor turgan bo‘lasiz.
14 Hushyor turinglar! Belingizga haqiqat kamarini taqinglar, ko‘ksingizga solihlik
sovutini kiyinglar, 15 tinchlik Xushxabarini yoyish uchun oyog‘ingizga ildamlik
poyabzalini kiyinglar. 16 Bularga qo‘shib, imon qalqonini qo‘lga olinglar. Shu qalqon
bilan yovuz shaytonning hamma alangali o‘qlarini kuchdan qoldirasizlar. 17 Shuningdek,
boshingizga najot dubulg‘asini kiyinglar, Ruh beradigan, Xudoning kalomi bo‘lgan
qilichni ko‘taringlar.
18 Har qanday sharoitda Muqaddas Ruhga tayanib duo–ibodat qilinglar. Ibodatda
hushyor va sabotli bo‘lib, Xudoning barcha azizlari uchun iltijo qilinglar. 19 Men uchun
ham ibodat qilinglar. Men og‘zimni ochganimda, zarur bo‘lgan so‘z menga berilsin, toki
qo‘rqmasdan Xushxabar sirini* bayon eta olayin. 20 Shu Xushxabarning elchisi bo‘lganim
uchun hibsdaman*. Elchiga loyiq ravishda men Xushxabarni jasurlik bilan e’lon qilishim
uchun ibodat qilinglar.

So‘nggi tilaklar

21 Tixikus sizlarga mening hol–ahvolimni, nimalar qilayotganimni aytib beradi. U
suyukli birodarimiz, Rabbimiz Isoning sodiq xizmatkoridir. 22 Mana shu maqsadda,
bizning ahvolimizni sizlarga bildirsin, sizlarga dalda bersin deb, uni sizlarning
oldingizga yuboryapman.
23 Birodarlarim, Otamiz Xudo va Rabbimiz Iso Masih sizlarga tinchlik, mehr–
muhabbat va imon ato qilsin. 24 Rabbimiz Iso Masihni yaxshi ko‘rganlarning hammasiga
to abad Xudoning inoyati yor bo‘lsin*.

IZOHLAR

...qamoqda bo‘lgan paytda... — 3:1 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

1:1 *...Iso Masihga sodiq bo‘lgan...* — yoki *...Iso Masihga imon keltirgan...*.

1:4-5 *...benuqson, bir–birimizga mehr bog‘lagan insonlar bo‘la olamiz. 5 Xudo...* — yoki *...benuqson insonlar bo‘la olamiz. Bizga muhabbat ko‘rsatib, 5 Xudo...*.

1:9 *O‘z irodasining siri* — 3:2-6 ga qarang.

1:11 *...Xudoning xalqi bo‘ldik* — bu o‘rinda ishlatilgan yunoncha so‘z qur’a bo‘yicha mulk taqsimlash ma’nosini bildiradi. Bu oyatda majoziy ma’noda ishlatilib, imonlilar Xudoning bebaho mulki ekanligini ko‘rsatadi. Yana shu bobning 14, 18–oyatlariga va Qonunlar 32:8-9 ga qarang.

1:14 *...vaqti kelib...* — oxiratda najot to‘liq ro‘yobga chiqadigan vaqtga ishora (1 Butrus 1:5, Rimliklar 8:23, 13:11 ga qarang).

1:18 *...Xudoning xalqi U uchun naqadar boy mulk...* — shu bobning 11–oyati izohiga qarang.

1:20 *...Uni O‘zining o‘ng tomoniga o‘tirg‘izdi* — Zabur 109:1 ga qarang. O‘ng tomon muruvvat va baraka o‘rni deb hisoblangan.

2:11 *sunnat qilingan yahudiylar* — sunnat Xudoning Ibrohim va uning avlodi bilan qilgan ahd belgisi edi (Ibtido 17:1-14 ga qarang). Sunnat yahudiylarning Xudoga sodiqligini va Uning tanlagan xalqiga tegishli ekanini ko‘rsatadi.

2:11 *“sunnatsiz”* — bu so‘z g‘ayriyahudiylarning Xudodan mahrum bo‘lib kelganiga, Uning xalqi qatorida hisoblanmaganiga urg‘u beradi.

2:12 *ahdlar* — Xudoning Isroil xalqi va ularning ota–bobolari bilan qilgan ahdlariga ishora (Ibtido 15:18, 17:1-14, Chiqish 19:1-8, 2 Shohlar 7:8-16, Yeremiyo 31:31-34 ga qarang).

2:20 *havoriylaru payg‘ambarlar* — Iso Masihning Xushxabarini va’z qiladigan havoriylarga va Yangi Ahd davridagi payg‘ambarlarga ishora (3:5, 4:11-12 ga va 1 Korinfliklar 12:28 ga qarang).

2:20 *tamal toshi* — qadimgi paytlarda qurilishda poydevor uchun qo‘yilgan birinchi va eng muhim tosh hisoblanardi. Bu tosh poydevorning bir burchagini hosil qilib, binoning qolgan qismi o‘sha toshning joylashuvi bo‘yicha qurilardi.

3:1 *mahbus* — bu paytda Pavlus Rimda mahbus bo‘lgani ehtimoldan holi emas (Havoriylar 28:16, 30 ga qarang).

3:5 *Xudoning muqaddas havoriylari va payg‘ambarlari* — 2:20 ning birinchi izohiga qarang.

3:6 *bir tana a’zolari* — 4:4 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

3:9 *Butun borliqni...* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *Iso Masih orqali butun borliqni...*.

3:14 *samoviy Otamiz* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *Rabbimiz Iso Masihning samoviy Otasi*.

4:1 *mahbus* — 3:1 izohiga qarang.

4:4 *Hammamiz bir tananing a'zolarimiz…* — 1 Korinfliklar 12:12-27 ga qarang.

4:8 Muallif bu o'rinda Zabur 67:19 ning qadimiy yunoncha tarjimasidan foydalangan.

4:26 *Hatto g'azablanganingizda ham gunoh qilmanglar* — Zabur 4:5 ga qarang.

4:30 *…bir kun kelib…* — 1:14 ga va o'sha oyatning izohiga qarang.

5:9 *nur* — yunoncha matndan. Ba'zi yunon qo'lyozmalarida *Ruh*.

5:14 *Ey uxlayotgan, tur! …Masih senga nur sochar* — bu so'zlar ilk masihiylar kuylagan madhiyadan olingan bo'lishi mumkin.

5:21 *Iso Masih* — yunoncha matndan. Ba'zi yunon qo'lyozmalarida *Xudo*.

5:26 *suv* — suvga cho'mdirilish marosimiga ishora. Bu marosim qayta tug'ilish va gunohdan poklanish ramzidir (Yuhanno 3:5-7, Havoriylar 22:16, 1 Butrus 3:21 ga qarang).

5:26 *…Xudoning kalomi orqali poklab…* — Yuhanno 15:3, 1 Butrus 1:22-25 ga qarang.

5:30 *a'zolarimiz* — yunoncha matndan. Ba'zi yunon qo'lyozmalarida *a'zolarimiz, Uning etu suyagimiz*.

5:31 Ibtido 2:24 ga qarang.

6:2-3 Qonunlar 5:16 ga qarang.

6:19 *Xushxabar siri* — 3:2-6 ga qarang.

6:20 *hibsdaman* — 3:1 izohiga qarang.

6:24 Yunoncha matndan. Ba'zi yunon qo'lyozmalarida quyidagi so'z oyatga qo'shimcha qilingan: *omin*.

PAVLUSNING
FILIPPILIKLARGA
MAKTUBI

Kirish

Mazkur maktub muallifi havoriy Pavlusdir. Pavlus bu maktubini qamoqda bo‘lgan paytda* Filippi shahridagi imonlilar jamoatiga yozgan. Filippi Rim imperiyasining Makedoniya viloyatida joylashgan bo‘lib, boy shahar edi. Pavlus Yevropada Xushxabarni targ‘ib qilishni aynan shu shahardan boshlagan edi. Pavlusning faoliyati natijasida Filippi shahrida imonlilar jamoati vujudga keldi.

Pavlus bu maktubini Filippiliklar yuborgan hadyalar va ularning ibodatlari uchun o‘z minnatdorchiligini bildirish hamda ularga bo‘lgan mehr–muhabbatini izhor etish niyatida yozgan. Ushbu maktubida u Masih uchun hatto jonini fido qilishga ham tayyorligini yozadi, ammo Xushxabarni targ‘ib qilish va jamoatni o‘stirish maqsadida tirik qolishiga ishonchi komil ekanligini ta’kidlaydi. Pavlus mazkur maktubini yozar ekan, jamoatdagi yolg‘on ta’limotlar tufayli ko‘p aziyat chekayotganini bayon qiladi. Ba’zi odamlar, masihiylar Musoning qonuniga amal qilmasalar, najot topmaydilar, deb ta’lim berayotgan edilar. Pavlus mana shunday odamlardan ehtiyot bo‘lishni va ularning ta’limotlariga quloq tutmaslikni maslahat beradi, chunki bu ta’limotlar Pavlus targ‘ib qilgan Xushxabarga mutlaqo zid edi.

Maktub satrlarida Pavlusning jo‘shqin imoni va cheksiz quvonchi yorqin aks etgan. O‘zi qiyin ahvolda bo‘lsa ham, Pavlus fursatdan foydalanib, Filippilik imonlilarga tasalli beradi. O‘zining hayotidagi va ularning boshiga tushgan qiyinchiliklarga qaramay, ularni imonda sobit qolishga va jasoratli bo‘lishga undaydi. Ular qonunga amal qilish orqali emas, balki Xudoning inoyati tufayli Iso Masihga tegishli ekanliklarini eslatadi. U Iso Masihga ishonib yashaganlarga Xudo shodlik va tinchlik berishi haqida ham yozadi. Xudoning xalqi ahil yashashi kerakligini eslatadi. Ularga, xudbinlik va mag‘rurlik ixtiyorida bo‘lmanglar, balki Iso Masihga o‘xshab, kamtarin bo‘linglar, deb yolvoradi.

Ushbu maktub zamirida quvonch, ishonch, birlik va imonda sobitlik kabi mavzular yotadi. Maktubni o‘qir ekanmiz, Pavlusning Filippidagi jamoatga bo‘lgan o‘zgacha mehrini sezamiz.

1–BOB

Duoyi salom

1 Iso Masihning qullari Pavlus va Timo‘tiydan* Filippi shahridagi Iso Masihning
barcha azizlariga hamda jamoat yetakchilari va xizmatchilariga salom! 2 Otamiz Xudo va
Rabbimiz Iso Masih sizlarga inoyat va tinchlik ato qilsin.

Pavlusning Filippilik imonlilar uchun shukronasi va ibodati

3 Har safar sizlar haqingizda o‘ylaganimda Xudoyimga shukurlar aytaman.
4 Hammangiz uchun ibodat qilganimda, har doim shodlik bilan ibodat qilaman, 5 chunki
sizlar Xushxabarga ishonganingizdan boshlab, to hozirga qadar o‘sha Xushxabarni

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

yoyishda men bilan birga ishtirok etib kelmoqdasizlar. 6 Xudo sizlarning hayotingizda
boshlagan ezgu ishini Iso Masih keladigan kungacha bitirishiga aminman. 7 Sizlarni
yaxshi koʻrganim uchun hammangiz haqingizda shunday fikr qilishim oʻrinlidir. Axir,
qamoqdaligimda ham, Xushxabar haqiqat ekanligini himoya qilish va ta'kidlashimda
ham Xudo bergan inoyatda sizlar menga sheriksizlar. 8 Mana, Xudo shohid: men sizlarni
rosa sogʻinganman, chunki sizlarni Iso Masihnikiday boʻlgan mehr–muhabbat bilan
yaxshi koʻraman.
9 Sizlarning muhabbatingiz yanada oshib, bilim va aql–idrok bilan boyisin, deb
ibodat qilyapman, 10 chunki men sizlarning a'lo narsalarni tanlashingizni, Masih
keladigan kunda pok va aybsiz boʻlishingizni istayman. 11 Toki sizlarning hayotingiz Iso
Masih kuchi orqali solihlik samarasiga toʻlib, Xudoga sharaf va maqtov keltirsin.

Xushxabar yoyilayotganidan Pavlus xursand

12 Ey birodarlar, shuni bilishingizni istaymanki, boshimga tushganlarning hammasi
Xushxabarning yanada koʻproq yoyilishiga turtki boʻldi. 13 Masih tufayli qamalganim
butun saroy qoʻriqchilariga* va bu yerdagilarning hammasiga ma'lum boʻldi. 14 Mening
qamoqdagi vaziyatim koʻp birodarlarning Rabbimiz Isoga boʻlgan ishonchini oshirdi,
shuning uchun ular qoʻrqmasdan, katta jasorat bilan Masih haqidagi xabarni targʻib
qilmoqdalar.
15 Toʻgʻri, Masih haqidagi Xushxabarni ba'zilar baxillik va hasadgoʻylik bilan, ba'zilar
esa yaxshi niyat bilan targʻib qilyaptilar. 16 Yaxshi niyat bilan targʻib qilayotganlar meni
yaxshi koʻrganlari uchun va men Xushxabarni himoya qilishga tayinlanganimni bilib
shunday qilyaptilar. 17 Qolganlar esa Xushxabarni raqobat ruhi bilan targʻib qilyaptilar.
Ular pok niyatda emas, balki mening qamoqda tortayotgan azoblarim koʻpaysin deb,
shunday qilyaptilar*. 18 Ammo nima farqi bor? Yomon niyatdami, yaxshi niyatdami,
muhimi, Masih haqidagi Xushxabar targʻib qilinmoqda. Mana shu meni xursand qiladi.

Pavlus Masihni ulugʻlashni istaydi

Men xursand boʻlishda davom etaveraman, 19 chunki bilaman, sizlarning
ibodatlaringiz orqali va Iso Masih Ruhining yordami bilan mana shularning hammasi
mening ozod boʻlishimga olib keladi. 20 Ishonch bilan umid qilaman: isnodga
qolmayman, aksincha, jasorat koʻrsataman. Ha, umidim shuki, hozir ham oldingiday,
oʻlsam ham, yashasam ham mening tanam orqali Masih ulugʻlanadi. 21 Zotan, men uchun
hayot Masihdir, oʻlim esa yutuqdir. 22 Axir, tirik qoladigan boʻlsam, samarali ishlar
qilaveraman, shunday ekan, nimani tanlashni ham bilmayman. 23 Ikki yoʻlning qay birini
tanlashni bilmay, boshim qotib qoldi. Mening istagim bu dunyodan ketib, Masih bilan
birga boʻlishdir. Shunday boʻlsa juda yaxshi boʻlardi. 24 Ammo tirik qolishim sizlar uchun
zarurroqdir. 25 Bunga ishonchim komil, shuning uchun tirik qolishimni bilaman.
Sizlarning imoningiz mustahkamlanib, quvonchingiz oshib boraverishi uchun men sizlar
bilan birga qolaman. 26 Shunday qilib, men yana sizlarning oldingizga kelganimda, men
tufayli Iso Masihdan yanada koʻproq faxrlanasiz.

Hayotni Masihga bagʻishlab yashash

27 Nima boʻlishidan qat'i nazar, Masih Xushxabariga loyiq tarzda hayot kechirishingiz
kerak. Shunday yashanglarki, men sizlarni koʻrishga borganimda, Xushxabarning
samarasi boʻlgan imon uchun yakdillik bilan kurashib, bir ruhda mustahkam
turganingizni koʻray! Ammo sizlarni koʻrishga borolmasam, shunday xabar eshitay.

28 Sizlarga qarshilik koʻrsatayotganlardan hech hayiqmanglar. Sizlarning qat'iyatingiz
ularning halok boʻlishidan, sizlarning esa najot topishingizdan dalolat beradi. Bu
Xudoning ishidir. 29 Zotan, Xudo sizlarga nafaqat Masihga ishonish, balki Uning uchun
azob–uqubat tortish sharafini ato qilgan. 30 Axir, sizlar azob–uqubatlarimni koʻrdingiz,
hozir ham aziyat chekayotganim haqida eshityapsiz. Endi mana shu kurashda sizlar
mening sheriklarimsiz.

2–BOB

Masihdan oʻrnak oling

1 Masihga tegishli boʻlganingiz sizlarga dalda beryapti, Uning sevgisidan tasalli
topyapsiz, Muqaddas Ruh bilan muloqotdasiz, yuraklaringiz mehr–shafqatga toʻla.
2 Shunday ekan, mening shodligimga shodlik qoʻshib, bir xil fikr qiling, bir–biringizga
mehr–muhabbat koʻrsating, yakdillik bilan hamfikr boʻling. 3 Hech bir ishni xudbin
niyatda qilmang, shuhratparast boʻlmang, aksincha, kamtarlik bilan boshqalarni
oʻzingizdan yuqori deb biling. 4 Faqat oʻzingizning emas, balki boshqalarning ham
manfaatini koʻzlang.
5 Fikr–zikringiz Iso Masihnikiday boʻlsin. 6 Iso Masih Xudoning tabiatiga ega edi,
shunda ham U Xudo bilan tengligini mahkam tutmadi. 7 Aksincha, U bu ulugʻvorlikdan
voz kechib, qul tabiatiga kirdi, inson boʻlib tugʻildi. U inson qiyofasida yashab, 8 Oʻzini
past tutdi. Itoatkor boʻlib, hatto oʻlimga, xochdagi oʻlimga ham rozi boʻldi. 9 Shuning
uchun Xudo Uni eng yuqoriga yuksaltirdi va Unga har qanday ismdan yuqori ismni ato
etdi. 10 Toki Isoning oldida yeru osmondagi va yer ostidagi borliq jon tiz choʻksin, 11 har
bir til Iso Masihni Rabbiy deb tan olib, Otamiz Xudoga sharaf keltirsin.

Najotingiz yorqin koʻrinib tursin

12 Ey azizlarim, mana shularni yodda tutib, har doimgiday itoatkor boʻlishda davom
etaveringlar. Faqatgina sizlar bilan boʻlganimda emas, hatto yoningizda boʻlmasam ham,
Xudoning oldida qoʻrquv va titroq bilan shunday yashanglarki, najot topganingiz yorqin
koʻrinib tursin. 13 Zotan, Xudo Oʻzini xushnud qiladigan ishlarni qilishingiz uchun
sizlarga kuch va xohish beradi.
14-16 Mana shu buzuq va egri nasl orasida Xudoning nuqsonsiz, aybsiz va pok
farzandlari boʻlishingiz uchun hamma narsani nolimay, bahslashmay qilinglar.
Hayotbaxsh xabarni mahkam tutar ekansiz, oʻsha buzuq va egri nasl orasida samodagi
yulduzlar kabi porlaysizlar. Shunda Masih kelgan kuni, mehnatim zoye boʻlmaganidan,
qilgan ishlarim behuda ketmaganidan faxrlanaman. 17 Siz imoningizga asoslanib, xizmat
qilib kelyapsiz, shu sizning qurbonligingizdir. Agarda mening jonim fido boʻlib, hayotim
sizning qurbonligingiz ustiga toʻkiladigan sharob nazriday* boʻlib qolsa ham, xursand
boʻlaman, hammangiz bilan birga shodlanaman. 18 Xuddi shuningdek, sizlar ham
xursand boʻlinglar va men bilan birga shodlaninglar.

Pavlus Timoʻtiyni va Epafroditusni Filippiga joʻnatmoqchi

19 Rabbimiz Isoning irodasi bilan yaqinda Timoʻtiyni sizlarning oldingizga
yuboraman, deb umid qilaman. Shunda ahvolingizdan xabardor boʻlib, koʻnglim taskin
topadi. 20 Timoʻtiyni yuborishimning sababi shuki, sizlar uchun xuddi menday chin
koʻngildan jon kuydiradigan boshqa hech kim yoʻq. 21 Qolganlar Iso Masihga xizmat

qilishni emas, balki oʻz manfaatini koʻzlaydi. 22 Oʻzlaringiz bilasizlar, biz Xushxabarni yoyishda Timoʻtiy bilan birga ota–oʻgʻilday xizmat qildik. U oʻzining hurmatga loyiq ekanligini koʻrsatdi. 23 Shuning uchun taqdirim aniq boʻlishi bilanoq Timoʻtiyni sizlarning oldingizga yuboraman, deb umid qilaman. 24 Oʻzim ham yaqinda oldingizga boraman. Bu haqda Rabbimizning Oʻzi menda ishonch hosil qildi.

25 Hozir esa Epafroditusni* yoningizga yuborishni lozim koʻrdim. U sizlarning yuborgan elchingiz, muhtojligimda menga madad bergan birodarim, hamkorim va safdoshimdir. 26 Epafroditus sizlarni juda sogʻingan. Uning kasalligi haqida eshitganingizni ham bilib qattiq qaygʻuryapti. 27 Haqiqatan ham u oʻlar holatda kasal edi, ammo Xudo unga rahm–shafqat koʻrsatdi. Bu bilan Xudo faqat unga emas, balki gʻamimga gʻam qoʻshilmasin deb, menga ham shafqat qildi. 28 Shunday qilib, yana Epafroditusni koʻrib, seviningiz degan niyatda uni tez orada oldingizga yuboraman. Shunday qilsam, gʻamim ancha yengillashadi. 29 Rabbimiz Isoga ishonganlar bir–birlarini qanday kutib olsalar, sizlar ham Epafroditusni xuddi shunday qilib, katta quvonch bilan kutib olinglar. Bunday insonlarga munosib boʻlgan izzat–hurmatni unga koʻrsatinglar. 30 Axir, u Masihga xizmat qilish yoʻlida bir oʻlimdan qoldi. Sizlarning oʻrningizga ham menga xizmat qilib, oʻz jonini ayamadi.

3–BOB

Masihni tanib–bilishdan afzalroq hech narsa yoʻq

1 Endi esa, ey birodarlarim, Rabbimiz Iso tufayli shodlaning! Sizlarga bir xil narsalarni yozaversam ham zerikmayman, yozganlarim sizlarni har xil balolardan asraydi. 2 Itday boʻlganlardan, yovuzlik qiladiganlardan, tanasini kesadiganlardan* ehtiyot boʻlinglar! 3 Axir, ular emas, biz haqiqiy sunnat qilinganmiz, chunki biz Xudoning Ruhi yordamida sajda qilamiz. Biz Iso Masih bilan maqtanamiz, insoniy xususiyatlarimizga ishonmaymiz.

4 Vaholanki, men oʻz xususiyatlarimga ishonsam boʻladi. Axir, bunday qilishga menda hammanikidan ham koʻra, koʻproq sabab bor. 5 Men sakkiz kunligimda sunnat qilinganman*, Isroil avlodidan, Benyamin qabilasidanman. Men haqiqiy ibroniyman. Farziy* boʻlib, Xudoning qonuniga soʻzsiz rioya qilardim. 6 Jon–jahdim bilan jamoatni quvgʻin qilardim. Qonunlarga rioya qilishga asoslangan solihlikka kelganda, aybsiz edim. 7 Ammo men uchun foyda boʻlgan bularning hammasini endi Masih tufayli zarar deb hisoblayman. 8-9 Ha, hamma narsa qadrsizdir, chunki Rabbim Iso Masihni tanib–bilishdan afzalroq hech narsa yoʻq deb hisoblayman. Uni deb, men hamma narsadan voz kechdim. Masihga sazovor boʻlish, butunlay Unga tegishli boʻlish uchun hamma narsani axlat deb bildim. Endi qonunga rioya qilish orqali solihlikka erishishga umid qilmayman, aksincha, Masihga boʻlgan imonim bilan solihlikka erishishga intilaman. Ha, bu solihlikni Xudo imon tufayli beradi. 10 Maqsadim shuki, Iso Masihni bilay, Uni tiriltirgan qudrat mening hayotimda ham oʻz kuchini koʻrsatsin, Masihning azoblariga sherik boʻlay. Uning oʻlim paytidagi fikr–zikri mening hayot tarzim namunasi boʻlsin. 11 Bir kun kelib, men oʻlikdan tirilishga erishaman, deb umid qilaman.

Yutuq tomon intilish

12 Men maqsadimga yetdim yoki kamolotga erishdim, deb aytolmayman. Ammo men unga yetishay, deb intilaman, chunki Iso Masih aynan shu maqsad uchun meni Oʻziniki

qilib olgan. 13 Birodarlar, men o‘zimni o‘sha maqsadga yetishganman deb
hisoblamayman. Ortda qolganlarni unutib, oldinga intilaman. Faqatgina 14 o‘sha
maqsadni ko‘zlayman–da, Xudo meni Iso Masih orqali chaqirib, menga ato qiladigan
samoviy yutuq tomon intilmoqdaman. 15 Biz hammamiz, imon jihatidan yetuklikka
erishganlar, shunday o‘ylashimiz kerak. Agar sizlar biror narsa haqida boshqacha fikrda
bo‘lsangiz, Xudo sizlarga nohaq ekanligingizni ayon qiladi. 16 Nima bo‘lishidan qat’i
nazar, qay darajaga erishgan bo‘lsak, endi shu bo‘yicha yashashda davom etaveraylik*.
17 Birodarlarim, mendan o‘rnak olayotganlarga qo‘shilinglar. Bizning namunamiz
bo‘yicha yashayotganlarga e’tibor berib, ulardan o‘rganinglar. 18 Axir, men sizlarga oldin
ko‘p marta aytganman, hozir ham ko‘zlarimga yosh to‘lib, qaytaryapman: Masih
xochining dushmani bo‘lib yashayotganlar ko‘p. 19 Ularning oxiri — halokat, ularning
xudosi nafsdir. Uyatsiz qiliqlaridan faxrlanadilar. Ularning o‘y–xayollari foniy dunyodagi
narsalarga berilgan. 20 Bizning vatanimiz esa samodadir. Bizlar najotkorimiz bo‘lgan
Rabbimiz Iso Masihning o‘sha yerdan kelishini intizorlik bilan kutyapmiz. 21 Rabbimiz
butun borliqni O‘ziga bo‘ysundirish kuchiga egadir. Mana shu kuch bilan U bizning ojiz,
foniy tanamizni O‘zining ulug‘vor tanasiga o‘xshatib o‘zgartiradi.

4–BOB

Turli pand–nasihatlar

1 Shunday qilib, sevimli birodarlarim, sizlarga aytganlarim bo‘yicha, Rabbimiz Iso
bilan bo‘lgan munosabatingizda mahkam turinglar. Azizlarim, men sizlarni juda
sog‘indim. Sizlar mening quvonchimsiz, faxrimsiz!
2 Evodiya va Sintixa, sizlardan iltimos qilaman, Rabbimiz haqi yakdil bo‘linglar. 3 Ey
vafodor hamkorim, sendan ham o‘tinaman, bu ayollarga yordam ber, chunki ular men
bilan birga, Kliment hamda ismlari hayot kitobida* yozilgan boshqa hamkorlarim qatori
Xushxabarni targ‘ib etishda ter to‘kdilar.
4 Har doim Rabbimiz Iso tufayli shodlaning! Yana bir bor aytaman, shodlaning!
5 Hammaga nisbatan muloyim bo‘ling. Rabbimiz yaqinda keladi*. 6 Hech narsadan
tashvish qilmanglar. Aksincha, har qanday sharoitda ibodat va iltijoda bo‘lib, har bir
muhtojligingizni Xudoning oldida minnatdorchilik bilan izhor qilinglar. 7 Shunda Xudo
beradigan, inson xayoliga sig‘maydigan tinchlik Iso Masih orqali sizlarning
yuraklaringizni va o‘y–xayollaringizni qo‘riqlaydi.
8 Endi esa, ey birodarlarim, fikr–zikringiz haqiqiy, sharafli, to‘g‘ri, pok, yoqimli,
tahsinga sazovor narsalarda bo‘lsin. Ha, olqishga loyiq, a’lo narsalar haqida fikr
yuritinglar. 9 Ta’limotimni qabul qildingiz. Endi mendan o‘rganganlaringizning, ko‘rgan–
eshitganlaringizning hammasini bajaringlar. Shunda tinchlik beradigan Xudo sizlar bilan
birga bo‘ladi.

Pavlusning minnatdorchiligi

10 Sizlar men uchun yana g‘amxo‘rlik qilayotganingizdan juda xursand bo‘lib,
Rabbimiz Isoga shukur qilyapman. Albatta, sizlar oldin ham men uchun g‘amxo‘rlik
qilardingiz, lekin buni ko‘rsatishga imkoniyatingiz bo‘lmagan edi. 11 Bularni
muhtojlikdan aytayotganim yo‘q, chunki men har qanday sharoitda boriga qanoat
qilishga o‘rganganman. 12 Har qanday sharoitda va har yerda ham to‘q bo‘lish, ham och
qolish, mo‘l–ko‘lchiligu muhtojlikda yashash sirlarini o‘rganganman. Men tanqislikda

ham, mo‘l–ko‘lchilikda ham qanday hayot kechirishni bilaman. 13 Menga kuch–quvvat
beradigan Iso Masihning madadi bilan har narsani qila olaman. 14 Nima bo‘lishidan qat’i
nazar, sizlar qiyinchiliklarimga sherik bo‘lib yaxshi qildingizlar.
15 Axir, siz, Filippiliklar, o‘zlaringiz bilasizlar–ku, men sizlarga Xushxabarni aytgan
paytimdan* boshlab, Makedoniyadan ketganimdan keyin ham faqat sizlar menga
moddiy jihatdan yordam berardingiz. Sizlardan boshqa hech bir jamoat bunday qilmadi.
16 Hatto Salonikada* bo‘lganimda ham sizlar bir–ikki marta menga yordam berib,
ehtiyojimni qondirdingiz. 17 Men sizlardan biror narsa undirib olish niyatida
gapirayotganim yo‘q. Aksincha, sizlarning foydangiz ko‘payishini ko‘zlayapman. 18 Hozir
menda kerakli hamma narsa bor, hatto ortig‘i bilan bor. Epafroditusdan berib yuborgan
hadyalaringizni oldim. Endi hech bir muhtojligim qolmadi. Bu hadyalaringiz xushbo‘y
nazrday, Xudoga ma’qul bo‘ladigan yoqimli qurbonlik kabidir. 19 Xudoyim O‘zining
ajoyib boyligi bilan Iso Masih orqali sizlarning har bir ehtiyojingizni qondiradi. 20 Otamiz
Xudoga abadulabad shon–sharaflar bo‘lsin! Omin.

So‘nggi salomlar

21 Iso Masihga tegishli bo‘lganlarning hammasiga salom aytib qo‘ying. Yonimdagi
birodarlar ham sizlarga salom aytyapti. 22 Xudoning azizlari bo‘lganlarning hammasi,
ayniqsa Qaysar* xizmatida bo‘lganlar*, sizlarga salom yo‘llayaptilar.
23 Rabbimiz Iso Masihning inoyati sizlarga yor bo‘lsin!*

IZOHLAR

...qamoqda bo‘lgan paytda... — 1:13 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

1:1 *Timo‘tiy* — ilk jamoatning yetakchisi bo‘lib, havoriy Pavlusning hamkori (Havoriylar 16:1-3 ga qarang).

1:13 *saroy qo‘riqchilari* — Rim imperatoriga xizmat qilgan alohida bir guruh sipohlar. Maktub yozilgan paytda Pavlus Rimda, ijaraga olgan uyda yashagan bo‘lishi mumkin. Imperatorning ba’zi sipohlari Pavlusni o‘sha yerda qo‘riqlar edi (Havoriylar 28:16, 30 ga qarang). Ehtimol, Pavlus mana shu sipohlarning ko‘pchiligi bilan muloqotda bo‘lgandir, chunki ular kechayu kunduz navbat bilan Pavlusni qo‘riqlardilar.

1:17 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida shu bobning 16-17–oyatlari o‘rni almashtirilgan holda keltirilgan.

2:17 *sharob nazri* — qurbongohda kuydiriladigan ba’zi bir qurbonliklar ustiga quyiladigan nazr. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi NAZR iborasi ostida berilgan SHAROB NAZRI so‘ziga qarang.

2:25 *Epafroditus* — Filippilik imonlilar Pavlusga shu odam orqali hadya yuborishgan (4:18 ga qarang). Epafroditus Filippiga qaytib ketayotganda, Pavlus ushbu maktubini u orqali berib yuborgan edi.

3:2 *Itday bo‘lganlar...tanasini kesadiganlar...* — Pavlus bu o‘rinda Xudoga manzur bo‘lish uchun sunnat qilinish kerak, deb o‘rgatgan odamlarga ishora qiladi. Pavlusning o‘zi sunnatga qarshi bo‘lmagan, ammo najot topish uchun sunnat qilinish kerak, degan ta’limotga qat’iyan qarshi edi (Havoriylar 15:1-2 ga qarang).

3:5 *Men sakkiz kunligimda sunnat qilinganman...* — sunnat Xudoning Ibrohim va uning avlodi bilan qilgan ahd belgisi edi (Ibtido 17:9-14 ga qarang). Sunnat yahudiylarning Xudoga sodiqligini va Uning tanlagan xalqiga tegishli ekanini ko‘rsatadi.

3:5 *Farziy* — yahudiylarning muhim bir diniy mazhabi. Farziylar Tavrot qonunlariga qat’iy rioya qilardilar, og‘zaki ravishda tarqalgan urf–odatlarga hamda poklanish udumlariga izchil amal qilardilar. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi FARZIY so‘ziga qarang.

3:16 *...shu bo‘yicha yashashda davom etaveraylik* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *shunga yarasha fikr qilishimiz va o‘sha qoida bo‘yicha yashashimiz kerak*.

4:3 *hayot kitobi* — Xudo O‘ziga tegishli bo‘lganlarning ismlarini yozib qo‘ygan kitob (Vahiy 20:11-15 ga qarang).

4:5 *Rabbimiz yaqinda keladi* — yoki *Rabbimiz yaqin*.

4:15 *...men sizlarga Xushxabarni aytgan paytimdan boshlab...* — Havoriylar 16:12-40 ga qarang.

4:16 *Salonika* — Rim imperiyasiga qarashli bo‘lgan Makedoniya viloyatining poytaxti.

4:22 *Qaysar* — barcha Rim imperatorlariga berilgan unvon.

4:22 *Qaysar xizmatida bo‘lganlar* — 1:13 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

4:23 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida quyidagi so‘z oyatga qo‘shimcha qilingan: *omin*.

PAVLUSNING
KOLOSALIKLARGA
MAKTUBI

Kirish

Mazkur maktub muallifi havoriy Pavlusdir. Pavlus bu maktubini qamoqda bo‘lgan paytda* Kolosa shahridagi imonlilar jamoatiga yozgan. Bu shahar hozirgi Turkiya hududida, Efes shahrining sharqida joylashgan edi. Kolosadagi imonlilar jamoatiga Pavlus emas, balki Epafras ismli masihiy yetakchi asos solgan edi. Maktubda Pavlus Epafrasning ismini bir necha marta tilga olgan. Maktub yozilgan paytda Epafras Pavlus bilan birga edi.

Ushbu maktubda asosiy urg‘u Iso Masihga berilgan. Pavlus Masihning shaxsiyati va U bergan najotning to‘liqligi haqida so‘z yuritadi, insoniy falsafaning puchligini ko‘rsatadi. Muallif Masihni ulug‘laydi, Uni turli tarzda: ko‘rinmas Xudoning surati, dunyo yaratilmasdan oldin mavjud bo‘lgan va butun borliqni asrab turgan Zot, jamoatning Boshi, ilohiy komillik namoyandasi, butun borliqni Xudo bilan yarashtirgan Najotkor, deb ta’riflaydi. Pavlus Kolosalik imonlilarni Masihga umid bog‘lashga, Xudo bilan birlikda, Unga bo‘ysungan holda yashashga chaqiradi.

Pavlusning maqsadi Kolosa jamoatidagi yolg‘on ta’limotni fosh etish edi. U Kolosadagi imonlilarni ogohlantirib, diniy rasm–rusumlardan ehtiyot bo‘linglar, najot topish uchun o‘zingizni qiynoq–azoblarga solmanglar, quruq safsatalardan qochinglar, farishtalarga sajda qilmanglar, deb nasihat qiladi. Najot topish uchun Masihga ishonishning o‘zi kifoya ekanligini o‘rgatadi.

Maktub so‘ngida muallif masihiylarga nasihatlar va ko‘rsatmalar beradi. Xudoning sevgisi ularning kundalik hayotida, chunonchi, er–xotin munosabatlarida, ota–ona va farzandlar, xo‘jayin va qul munosabatlarida aks etishi kerakligini ta’kidlaydi.

1–BOB

Salom

1 Xudoning irodasi bilan Iso Masihning havoriysi bo‘lgan men — Pavlus hamda
birodarim Timo‘tiydan* 2 Kolosa shahridagi Xudoning azizlari, Masihga tegishli bo‘lgan
sodiq birodarlarimizga salom! 3 Otamiz Xudo* sizlarga inoyat va tinchlik ato qilsin!

Shukrona ibodati

Sizlar uchun ibodat qilganimizda biz har doim Xudoga, Rabbimiz Iso Masihning
Otasiga shukur aytamiz. 4 Chunki Iso Masihga bo‘lgan imoningiz va Xudoning barcha
azizlariga ko‘rsatayotgan sevgingiz haqida biz eshitdik. 5-6 Xudo sizlar uchun jannatda
shodlik tayyorlab qo‘yganiga umid bog‘ladingiz. Xushxabar, ya’ni haqiqat so‘zi sizlarga
yetib kelganda mana shu umid haqida eshitdingiz. Imoningiz va sevgingiz bu
umidingizga asoslangan. Xushxabar butun dunyo bo‘ylab samara keltirib, yoyilmoqda.
Xushxabarni eshitib, Xudo inoyatining haqiqiy ma’nosini tushunib yetgan kuningizdan
beri sizlarning orangizda ham Xushxabar samara bermoqda. 7 Sizlar bu Xushxabarni

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

bizning aziz hamkorimiz Epafrasdan* eshitdingiz. U sizlar uchun sadoqat bilan Masihga
xizmat qilyapti. 8 Muqaddas Ruh sizlarga ato qilgan mehr–muhabbat haqida u bizga
aytib berdi.
9 Shu sababdan sizlar haqingizda eshitgan kunimizdan beri sizlar uchun ibodat
qilishni kanda qilmayapmiz. Xudoning Ruhi beradigan donolik va aql–idrok orqali Uning
irodasini to‘liq anglab yeting, deb ibodat qilyapmiz. 10 Shunda sizlar Rabbimiz Isoga
munosib hayot kechirib, har jihatdan Uni xursand qilasizlar. Qilgan har bir
yaxshiligingiz samara keltiradi va sizlar Xudoni yanada chuqurroq tushunib bilasizlar.
11-12 Xudo O‘zining buyuk qudrati bilan sizlarni kuch–quvvatga to‘ldirib, har qanday
vaziyatda sizlarga sabr–toqat va bardosh bersin. Xudo O‘zining aziz xalqiga va’da qilgan
nurdan* bahramand bo‘lishni sizlarga loyiq ko‘rgani uchun quvonch bilan osmondagi
Otamizga shukrona ayting. 13 U bizni zulmat hukmronligidan qutqarib, sevikli O‘g‘lining
Shohligiga qabul qildi. 14 O‘z O‘g‘li orqali* bizni kechirib, gunohlarimizdan ozod qildi.

15 Ko‘rinmas Xudoning surati Masihdir,
U butun borliqning to‘ng‘ichidir*.
16 Xudo butun borliqni Masih orqali yaratgan.
Yeru ko‘kdagi bor mavjudot,
Ko‘rinadigan va ko‘rinmaydigan har bir narsa,
G‘ayritabiiy kuchlar, taxtu saltanatlar,
Bularning hammasi Masih orqali,
Uning O‘zi uchun yaratilgandir.
17 Masih butun borliqdan oldin mavjud edi,
Butun borliq U tufayli mustahkam turibdi.
18 Masih jamoatning boshidir,
Jamoat Masihning tanasidir.
Hamma narsaning ibtidosi Masihdir,
U hammadan ustun bo‘lishi uchun
Birinchi bo‘lib o‘likdan tiriltirilgan.
19 Xudo O‘z komilligini
Isoda jo qilishni ma’qul ko‘rdi.
20 Yeru ko‘kdagi borliq mavjudotni
Masih orqali Xudo O‘zi bilan yarashtirib,
Masihning xochda to‘kilgan qoni orqali
Ular bilan tinchlik o‘rnatdi.

21 Sizlar ham bir vaqtlar Xudoga dushman edingizlar. Fikru zikringiz Xudodan uzoq
bo‘lib, yomon ishlar qilardingizlar. 22 Masihning jismoniy tanadagi o‘limi orqali Xudo
sizlarni O‘zi bilan yarashtirdi. Endi sizlar Xudoning oldida muqaddas, benuqson va
aybsiz turasizlar. 23 Shunday ekan, hech ikkilanmay, imoningizda mahkam turishingiz
kerak. Sizlar Xushxabarni eshitib, umidga ega bo‘ldingiz. O‘sha umidingizni yo‘qotmang.
Bu Xushxabar yer yuzidagi butun jonzotga e’lon qilindi. Men — Pavlus o‘sha
Xushxabarning xizmatchisiman.

Pavlus — jamoat xizmatkori

24 Men sizlar uchun azob chekayotganimdan xursandman. Axir, men Masih tanasi,

ya’ni jamoat uchun azob chekyapman. Shunday qilib, mening azoblarim Masih chekkan
azoblarga qo‘shiladi. 25 Xudoning xabarini sizlarga to‘liq e’lon qilishim uchun U meni
jamoatning xizmatchisi qilib tayinladi. 26 Bu Xushxabar asrlaru nasllar davomida sir
tutilgan edi, endi esa u Xudoning azizlariga oshkor qilindi. 27 Xudo barcha xalqlar ham
Masih orqali boy ulug‘vorlikka yetishishlarini hammamizga ko‘rsatishni istadi. Bu
sirning mohiyati shudir: Masih, ya’ni ulug‘vorlikka yetishish umidi sizlarning
orangizdadir. 28 Har biringiz Masih tanasining yetuk a’zosi sifatida Xudoning oldida
turishingizni istaymiz. Shuning uchun biz hammani ogohlantirib, donolik bilan ta’lim
berib, Masih haqida o‘rgatyapmiz. 29 Men ham ana shu maqsadda jon–jahdim bilan
xizmat qilar ekanman, menga kuchli ta’sir qilayotgan Masihning qudratiga suyanaman.

2–BOB

1 Men sizlar uchun, shuningdek, Laodikiya shahridagilar* hamda meni shaxsan
ko‘rmagan imonlilarning hammasi uchun naqadar zo‘r g‘ayrat bilan mehnat
qilayotganimni bilishingizni istayman. 2 Maqsadim shuki, sizlar dadil bo‘ling, muhabbat
rishtalari sizlarni birlashtirsin, Xudoning siri — Masih* haqida chuqur va boy
tushunchaga ega bo‘ling. 3 Chunki donolik va ilmu ma’rifatning hamma xazinalari
Masihda pinhondir. 4 Hech kim sizlarni tilyog‘lamalik bilan yo‘ldan ozdirmasin deb, men
sizlarga shularni aytyapman. 5 Garchi men jisman sizlarning orangizda bo‘lmasam ham,
xayolan siz bilan birgaman. Sizlarning tartib–intizomingiz va Masihga bo‘lgan sog‘lom
imoningizni ko‘rib sevinyapman.

Masih ato qiladigan yangi hayot

6 Sizlar Iso Masihni Rabbimiz deb qabul qilgan ekansizlar, doimo U ko‘rsatgan
yo‘ldan yuravering. 7 Olgan ta’limotingizga muvofiq, Masihda tomir yoyib, qaror toping.
Imoningizda qattiq turing, Xudoga shukronalar tilingizdan tushmasin. 8 Ehtiyot
bo‘linglar, hech kim falsafa va quruq safsatalar bilan sizlarni avramasin. Bunday gaplar
Masihga emas, balki insonlarning an’anasiga, dunyoning xurofiy kuchlariga* asoslanadi.
9 Xudo O‘zining butun borlig‘i bilan to‘la–to‘kis Masihning vujudida mavjuddir.
10 Masihga tegishli bo‘lganingiz uchun hayotingiz to‘la–to‘kis, chunki U har qanday kuch
va hokimiyatdan ustundir. 11 Masih orqali sizlar sunnat qilindingiz, bu jismoniy sunnat*
emas, balki Masih orqali qilinadigan sunnat, ya’ni gunohkor tabiatning kesib
tashlanishidir. 12 Suvga cho‘mdirilish orqali Masih bilan birga ko‘mildingiz. Masihni
o‘likdan tiriltirgan Xudoning qudratiga bo‘lgan imoningiz tufayli Masih bilan birga
tirildingiz. 13 Ilgari sizlar sunnatsiz*, gunohga botgan bo‘lib, ruhan o‘lik edingizlar. Endi
esa Xudo barcha gunohlaringizni kechirib, sizlarni Masih bilan birga tiriltirdi. 14 Bizga
qarshi yozilgan ayblov hukmini Xudo bekor qildi, ya’ni o‘sha hukmni xochga mixlab,
kuchdan qoldirdi. 15 O‘sha xoch orqali koinotdagi kuchlaru hukmronliklar ustidan
g‘alaba qozonib, ularni qurolsizlantirdi. O‘zining g‘olibona yurishida* ularning tutqun
ekanligini namoyish etib, sharmanda qildi.

16 Shuning uchun yegulik–ichgulik, diniy bayramlar, yangi oy shodiyonalari yoki
Shabbat kuni xususida hech kim sizlarga qonun–qoida chiqarmasin. 17 O‘sha urf–odatlar
kelajakning sharpasigina, xolos, ammo haqiqiy hayot Masihdadir. 18 Shunday ekan,
dindorlikka berilib, o‘zini mo‘minlikka soladiganlar, farishtalarga sig‘inadiganlar sizlarni
kamsitsa, e’tibor bermanglar. Ular ko‘rgan vahiylari bilan maqtanadigan, aql–zakovati

bilan mag‘rurlanadigan odamlardir. 19 Bunday kishilar Masihdan ajralgan. Masih — O‘z
tanasi, ya’ni jamoatning Boshidir. Mana shu Boshdan butun badan hayotbaxsh kuch olib,
payu bo‘g‘inlar orqali o‘zaro ulanib, Xudoning xohishi bo‘yicha o‘sadi.
20 Agar sizlar Masih bilan birga o‘lgan bo‘lsangizlar, dunyoning xurofiy kuchlari
uchun ham o‘lgan bo‘lasizlar. Unday bo‘lsa yana nimaga bu dunyoga qul bo‘lib,
21 “tegma”, “yema”, “ushlama” degan qonun–qoidalarga bo‘ysunasizlar?! 22 Bu insoniy
ta’limotlar va qoidalar ishlatilgan sari yo‘q bo‘lib ketadigan narsalar haqida–ku!
23 Garchi bu qoidalar keltirib chiqargan dindorlik, o‘zini mo‘min qilib ko‘rsatish, badanni
qiynash odamlarga hikmatday tuyulsa–da, aslida ular shahvatu nafsga bo‘lgan
ishtiyoqni ko‘paytiradi.

3–BOB

1 Sizlar Masih bilan birga tirilgan ekansiz, samoviy narsalarning payida bo‘ling, axir,
Masih ham samoda Xudoning o‘ng tomonida o‘tiribdi*. 2 Fikringiz yer yuzidagi emas,
samodagi narsalar bilan band bo‘lsin. 3 Axir, sizlar o‘lgansizlar, asl hayotingiz esa Masih
bilan Xudoning huzurida pinhondir. 4 Bizning hayotimiz Iso Masihdir. Masih zohir
bo‘lganda, sizlar ham U bilan birga ulug‘vorlikda zohir bo‘lasizlar.
5 Shunday ekan, dunyoviy tabiatingizni, ya’ni fahsh–zino, nopoklik, shahvat, yovuz
xohishlar va butparastlikka teng bo‘lgan ochko‘zlikni yo‘q qilinglar. 6 Mana shular
sababli Xudoning g‘azabi itoatsiz bandalarning boshiga tushadi! 7 Sizlar ham bir vaqtlar
shunday odamlarning yo‘lidan yurib, o‘zingizni o‘shalar kabi tutardingizlar. 8 Endi esa
jahl, g‘azab, yovuzliklarning hammasini bir chetga yig‘ishtirib qo‘yinglar. Og‘zingizdan
hech qanday jerkish yoki nojo‘ya so‘z chiqmasin. 9 Bir–biringizga yolg‘on gapirmanglar.
Chunki sizlar eski tabiatingizni, uning yomon odatlari bilan birga o‘zingizdan soqit
qildingizlar. 10 Buning o‘rniga siz yangi tabiatga burkandingiz. Sizlar Xudoni yaqinroq
bilib borarkansiz, sizning yangi tabiatingiz uni yaratgan Xudoning suratiga o‘xshab
bormoqda*. 11 Shu nuqtayi nazardan endi na yunon* bor, na yahudiy, na sunnatli bor, na
sunnatsiz, na johil* bor, na madaniyatsiz*, na qul bor, na ozod. Eng ahamiyatlisi
Masihdir, U hamma bilandir, hamma narsa Uning qo‘li ostidadir.
12 Sizlar Xudoning tanlangan, aziz va suyukli xalqisizlar. Shunga ko‘ra, rahm–shafqat,
mehribonlik, kamtarlik, muloyimlik va sabr–toqatni zeb–ziynat qilib taqib olinglar.
13 Bir–biringizga nisbatan sabr–toqatli bo‘linglar. Orangizda xafagarchilik o‘tgan bo‘lsa,
bir–biringizni kechiringlar. Egamiz* sizlarni kechirgani kabi, sizlar ham boshqalarni
kechiringlar. 14 Va nihoyat muhabbatga burkaninglar, chunki mehr–muhabbat
mukammal ahillikka yetishtiradi. 15 Masih ato qiladigan tinchlik yuraklaringizda
hukmron bo‘lsin, axir, sizlar bir tananing a’zosisizlar*, tinchlikka da’vat qilingansizlar.
Minnatdor bo‘linglar. 16 Masihning kalomi sizda chuqur o‘rnashib, yashnayversin.
Donolik bilan bir–biringizga ta’lim bering, nasihat qiling. Zaburlarni xonish qilib,
madhiyalar va ruhiy qo‘shiqlar bilan, chin ko‘ngildan minnatdorchilik bildirib, Xudoni
tarannum etinglar. 17 Nimaiki qilsangiz ham, gapirsangiz ham, hammasini Rabbimiz Iso
nomidan qilib, U orqali Otamiz Xudoga shukrona aytinglar.

Masihiy oilalar uchun qoidalar

18 Ey xotinlar, eringizga itoatli bo‘linglar. Shunday qilish Rabbimiz Isoning
izdoshlariga munosibdir.

19 Ey erlar, xotiningizni sevinglar, ularga qo‘pol muomalada bo‘lmanglar.
20 Ey farzandlar, doim ota–onangizga quloq solinglar, chunki bu Rabbimizga ma’qul keladi.
21 Ey otalar, farzandlaringizni ranjitavermanglar, bo‘lmasa ular tushkunlikka tushib qoladi.
22 Ey qullar, bu dunyodagi xo‘jayinlaringizga har doim itoat qilinglar. Xushomadgo‘ylik bilan xo‘ja ko‘rsinga emas, balki Rabbimizdan qo‘rqib, chin ko‘ngildan itoat qilinglar. 23 Har bir ishni insonlar uchun emas, Rabbimiz Iso Masih uchun qilayotganday chin qalbdan bajaringlar. 24 Chunki sizlar haqiqiy Xo‘jayiningiz Masihga xizmat qilyapsizlar. U O‘z xalqiga atab qo‘ygan qut–barakani sizlarga mukofot qilib berishini yoddan chiqarmang. 25 Kimki nohaqlik qilsa, qilmishiga yarasha jazo oladi. Zero, Xudo tarafkashlik qilmaydi.

4–BOB

1 Ey xo‘jayinlar, sizning ham samoda Xo‘jayiningiz borligini bilib, qullaringizga odil va to‘g‘ri muomala qiling.

Har xil nasihatlar

2 Doim ibodat qiling. Ibodatda hushyor bo‘lib, shukronalar keltiring. 3 Shuningdek, bizlar uchun ham ibodat qilinglar: biz Xudoning kalomini e’lon qilishimiz va Masih sirini* bayon etishimiz uchun Uning O‘zi bizga yo‘l ochib bersin. Men ana shu sir tufayli qamoqdaman. 4 Bu sirni munosib ravishda izhor eta olishimni Xudodan so‘ranglar.
5 Fursatni g‘animat bilib, imonlilar qatoriga qo‘shilmaganlarga nisbatan oqilona yo‘l tutinglar. 6 Ular bilan qanday gaplashishni sizlarga o‘rgatay: ular bilan gaplashganingizda so‘zingiz hamisha yoqimli va mazmunli bo‘lsin.

So‘nggi salomlar va tilaklar

7 Men haqimdagi barcha yangiliklarni Rabbimiz Isoning sodiq xizmatkori, hamkorim va suyukli birodarim Tixikus sizlarga aytib beradi. 8 Sizlarga dalda berib, hol–ahvolimizni sizlarga bildirsin* deb, men uni sizlarning oldingizga jo‘natyapman*.
9 Tixikus bilan birga oldingizga sodiq va sevimli birodarimiz, hamshaharingiz O‘nisimus* ham boradi. Ular bu yerda bo‘lib o‘tgan hamma narsani sizlarga aytib berishadi.
10 Men bilan birga qamalgan* Aristarxus* va Barnaboning jiyani Mark* ham sizlarga salom yo‘llayaptilar. Mark haqida yo‘l–yo‘riq olgansizlar: agar oldingizga borsa, uni yaxshi qabul qilinglar. 11 Yoshua, ya’ni Yustus ham sizlarga salom yo‘llayapti. Xudoning Shohligi yo‘lida mehnat qilayotgan bulardan boshqa yahudiy* hamkorlarim yo‘q. Ular menga tasalli bo‘lib kelmoqdalar. 12 Iso Masihning quli, hamshaharingiz Epafras* sizlarga salom yo‘llayapti. Xudoning irodasini to‘liq bajaradigan, imoni komil insonlar bo‘linglar deb, Epafras zo‘r g‘ayrat bilan, tinmay sizlar uchun ibodat qilmoqda. 13 U sizlar uchun hamda Laodikiya va Heyrapolis shaharlaridagi* imonlilar uchun ne–ne zahmatlar chekkaniga o‘zim shohidman. 14 Sevimli tabib Luqo* va Dimas sizlarga salom yo‘llashyapti. 15 Laodikiya shahridagi birodarlarga, ayniqsa, Nimfaga va uning* uyida yig‘iladigan jamoatga salom aytinglar.
16 Sizlarga yozgan bu maktubimni o‘qiganingizdan keyin, uni Laodikiyadagi jamoat ham o‘qisin. Sizlar esa Laodikiya jamoatiga yozgan maktubimni* o‘qinglar.
17 Arxippusga: “Rabbimiz Iso zimmangga yuklagan xizmatni oxiriga yetkazgin”, —

deb aytib qo‘yinglar.

18 Men, Pavlus, mana shu maktubning yakunini o‘z qo‘lim bilan yozyapman*.
Qamoqda ekanligimni esdan chiqarmanglar. Xudoning inoyati sizlarga yor bo‘lsin*.

IZOHLAR

...qamoqda bo‘lgan paytda... — 4:10 oyatga va 1:7 izohiga qarang.

1:1 *Timo‘tiy* — ilk jamoatning yetakchisi bo‘lib, havoriy Pavlusning hamkori (Havoriylar 16:1-3, Filippiliklar 2:20-22 ga qarang).

1:3 *Otamiz Xudo* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *Otamiz Xudo va Rabbimiz Iso Masih*.

1:7 *Epafras* — Kolosadagi jamoatning asoschisi, bu paytda Pavlus bilan birga bo‘lgan (4:12-13 ga va Filimo‘n 23–oyatga qarang). Pavlus Rimda mahbus bo‘lgani ehtimoldan holi emas (Havoriylar 28:16, 30 ga qarang).

1:11-12 *nur* — Xudoning O‘g‘li bo‘lgan Iso Masihning Shohligi ramzi (shu bobning 13–oyatiga qarang).

1:14 *O‘z O‘g‘li orqali...* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *O‘z O‘g‘lining to‘kilgan qoni orqali*.

1:15 *U butun borliqning to‘ng‘ichidir* — Iso Masihning butun borliq ustidan hukmdor ekanini ko‘rsatish uchun majoziy ma’noda ishlatilgan ibora (Ibroniylar 1:2 ga qarang). Yana Zabur 88:28 ga qarang.

2:1 *Laodikiya shahri* — Kolosa shahridan qariyb 17 kilometr g‘arbda joylashgan.

2:2 *Xudoning siri — Masih* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *Otamiz Xudoning va Masihning siri*. 1:25-27 ga qarang.

2:8 *dunyoning xurofiy kuchlari* — shu bobning 20-23–oyatlariga va Galatiyaliklar 4:3, 8-10 ga qarang.

2:11 *jismoniy sunnat* — sunnat Xudoning Ibrohim va uning avlodi bilan qilgan ahd belgisi edi (Ibtido 17:1-14 ga qarang). Sunnat yahudiylarning Xudoga sodiqligini va Uning tanlagan xalqiga tegishli ekanini ko‘rsatadi.

2:13 *sunnatsiz* — majoziy ma’noda ishlatilgan bo‘lib, Kolosaliklarning Iso Masihga imon keltirmaslaridan oldingi ruhiy holatini ko‘rsatadi.

2:15 *O‘zining g‘olibona yurishi* — bu o‘rinda ishlatilgan yunoncha so‘z urushdan g‘alaba bilan qaytgan Rim lashkarining tantanali yurishiga nisbatan ham ishlatilgan. Rim lashkarboshisi urushdan qaytib kelganda, Rim shahrining ko‘chalari bo‘ylab lashkari bilan tantanali yurish qilar edi. Asir olingan dushmanlar esa hammaning ko‘zi oldida ularning ortidan yurardi. Pavlus bu o‘rinda mana shu ibora bilan Iso Masihning shayton va uning shohligi ustidan bo‘lgan g‘alabasini tasvirlaydi.

3:1 *...Xudoning o‘ng tomonida o‘tiribdi* — Zabur 109:1 ga qarang. O‘ng tomon muruvvat va baraka o‘rni deb hisoblangan.

3:10 *...sizning yangi tabiatingiz uni yaratgan Xudoning suratiga o‘xshab bormoqda* — Ibtido 1:26-27, 1 Korinfliklar 15:45-49, 2 Korinfliklar 5:17, Galatiyaliklar 3:27 ga qarang.

3:11 *yunon* — ya’ni g‘ayriyahudiy. O‘sha davrda *yunon* so‘zi millati yunon bo‘lgan odamga nisbatan ham, yunon tilida gapirib, yunon urf–odatlariga rioya qiladigan

odamga nisbatan ham ishlatilgan.

3:11 *johil* — yunoncha matnda *varvar*. O‘sha davrda yunon tilini bilmagan va yunon urf–odatlariga rioya qilmagan odamlar johil va madaniyatsiz hisoblanardilar. Ularni odamlar “varvarlar” deb atashardi.

3:11 *madaniyatsiz* — yunoncha matnda *Skif*. Skiflar qadimiy xalq bo‘lib, o‘zlarining vahshiyligi bilan tanilgan edilar. Boshqalar ularni madaniyatsiz deb ularga past nazar bilan qarardilar. Madaniyatsiz odamlar skiflar degan nom bilan yuritilardi.

3:13 *Egamiz* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *Masih*.

3:15 *...sizlar bir tananing a’zosisizlar* — 1:18, 2:19 ga va 1 Korinfliklar 12:12-27 ga qarang.

4:3 *Masih siri* — 1:25-27, 2:2-3 ga qarang.

4:8 *...hol–ahvolimizni sizlarga bildirsin...* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *sizning hol–ahvolingizdan xabar olib kelsin*. Shu bobning 7, 9–oyatlarida Tixikus ularga Pavlus haqida xabar olib boradi deb yozilgani uchun ushbu tarjimada birinchi variantni tanlangan.

4:8 *...men uni sizlarning oldingizga jo‘natyapman* — Pavlus bu maktubini ularga Tixikus orqali berib yuborgan edi.

4:9 *O‘nisimus* — egasidan qochib ketgan bu qul Pavlusning xizmati orqali imonga kelgan edi. O‘nisimusning egasi Kolosada yashaydigan, Filimo‘n ismli imonli bir kishi edi. O‘nisimus endi Pavlusning Filimo‘nga yozgan maktubini olib, Rimdan Kolosaga, egasining oldiga qaytib ketayotgan edi (Filimo‘n 8-18–oyatlarga qarang). Shu bobning 9-17–oyatlarida aytib o‘tilgan ko‘p odamlarning ismlari Pavlusning Filimo‘nga yozgan maktubida ham tilga olingan.

4:10 *qamalgan* — 1:7 izohiga qarang.

4:10 *Aristarxus* — Salonika shahridan edi (Havoriylar 19:29, 20:4, 27:2 ga qarang).

4:10 *Mark* — Mark bayon etgan muqaddas Xushxabarning muallifi. Mark Quddus shahridan edi (Havoriylar 12:12, 25, 13:5, 15:37-39, 2 Timo‘tiy 4:11 ga qarang).

4:11 *yahudiy* — yunoncha matnda *sunnat qilingan*, Iso Masihga ishongan yahudiylar nazarda tutilgan.

4:12 *Epafras* — 1:7 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

4:13 *Laodikiya va Heyrapolis shaharlari* — Laodikiya Kolosa shahridan qariyb 17 kilometr g‘arbda, Heyrapolis esa 20 kilometr shimoli–g‘arbda joylashgan edi.

4:14 *Luqo* — Yangi Ahddagi to‘rtta Xushxabardan birining va Havoriylar faoliyati kitobining muallifi. U Pavlusning ko‘p safarlarida hamroh bo‘lgan (Havoriylar 16:10 izohiga qarang).

4:15 *uning* — yunoncha matndagi olmosh ayol kishiga nisbatan ishlatilgan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalaridagi olmosh esa erkak kishiga nisbatan ishlatilgan.

4:16 *Laodikiya jamoatiga yozgan maktubim* — Laodikiya jamoatiga yozilgan maktub haqida faqatgina shu oyatda aytib o‘tilgan. Bu maktub saqlanib qolmagan yoki Pavlus Efesliklarga yozgan maktubini nazarda tutgan bo‘lishi mumkin. Efesliklarga yozilgan

maktub oʻsha hududdagi jamoatlarda navbatma–navbat oʻqilgan boʻlsa kerak.

4:18 *...shu maktubning yakunini oʻz qoʻlim bilan yozyapman* — 1 Korinfliklar 16:21 izohiga qarang.

4:18 Yunoncha matndan. Ba'zi yunon qoʻlyozmalarida quyidagi soʻz oyatga qoʻshimcha qilingan: *omin*.

PAVLUSNING
SALONIKALIKLARGA
BIRINCHI MAKTUBI

Kirish

Mazkur maktub muallifi havoriy Pavlusdir. Pavlus bu maktubini Salonika shahridagi imonlilar jamoatiga yozgan. Salonika shahri Rim imperiyasiga qarashli Makedoniya viloyatining poytaxti edi. Pavlus Filippi shahrida imonlilar jamoatiga asos solgandan keyin, Salonikaga kelgan edi. Uning faoliyati natijasida bu yerda ham imonlilar jamoati vujudga keldi.

Yahudiy bo‘lmagan, ammo yahudiy diniga qiziqqanlar orasida Masih haqidagi Xushxabarni yoyishda Pavlus katta muvafaqqiyatga erishdi. Ammo Pavlusning bu ishi Salonikadagi yahudiylarning rashkini qo‘zg‘atdi. Ular Pavlusga qarshi chiqqanlari uchun, Pavlus Salonikadan Veriya shahriga, so‘ng Afinaga ketishga majbur bo‘ldi (Havoriylar 17:1-15 ga qarang). Pavlusni Salonikadagi imonlilarning ruhiy holati tashvishga solardi, shu sababdan u o‘zi Salonikaga bora olmasa–da, u yerga hamkori Timo‘tiyni jo‘natdi. Keyinchalik Pavlus Korinfga ketdi (Havoriylar 18:1 ga qarang). Timo‘tiy Salonikadan yaxshi xabar bilan Korinfga, Pavlusning oldiga bordi. Pavlus Salonikadagi masihiylarning imoni va sevgisi haqida eshitib, xursand bo‘ldi, ko‘ngli taskin topdi.

Pavlus Salonikaliklarga yozgan ushbu birinchi maktubida masihiylarga dalda beradi, ularning imon va sevgi bilan qilgan ishlari va sobit umidi uchun o‘z minnatdorchiligini bildiradi. Maktub davomida muallif Salonikada qilgan mehnati, chekkan zahmatlari va birodarlariga nisbatan pokdil munosabati haqida so‘z yuritadi. U imonlilarni Xudoga manzur hayot kechirishga undaydi. So‘ng Rabbimiz Isoning kelishi haqida so‘z yuritadi. Masih kelganda qanday hodisalar ro‘y berishi, olamdan ko‘z yumgan imonlilarning tirilishi va tiriklar bilan birga Masihni kutib olishlari haqida yozadi. Maktub yakunida Pavlus Salonikaliklarga so‘nggi pand–nasihatlarini beradi. Yetakchilarni hurmat qilishga, o‘zaro tinch–totuv yashashga, doim yaxshilik qilishga hamda sabr–toqatli, Xudodan minnatdor, hamisha xursand bo‘lishga, tinmay ibodat qilishga ularni chaqiradi.

1–BOB

Duoyi salom

1 Otamiz Xudo va Rabbimiz Iso Masihning Salonika shahridagi imonlilar jamoatiga
Pavlus, Silas* va Timo‘tiydan* salom! Xudoning* inoyati va tinchligi sizlarga yor bo‘lsin.

Salonikaliklarning hayoti va imoni

2 Biz doim sizlar uchun ibodat qilib, hammangiz uchun Xudoga shukurlar aytamiz.
3 Imon va sevgi bilan qilgan ishlaringiz uchun, Rabbimiz Iso Masihga bog‘lagan sobit
umidingiz uchun doimo Otamiz Xudoga minnatdorchiligimizni bildiramiz.
4 Ey Xudo sevgan birodarlarimiz, Xudo sizlarni tanlab olganini bilamiz. 5 Axir, biz
Xushxabarni sizlarga quruq so‘zlar bilan emas, balki to‘liq ishonch va Muqaddas
Ruhning qudrati bilan keltirdik. Orangizda bo‘lganimizda, sizlarning manfaatingizni

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

koʻzlab, qanday yashaganimizni bilasiz.
6 Sizlar bizdan va Rabbimiz Isodan oʻrnak oldingiz. Axir, koʻp azob–uqubat
chekkaningizga qaramay, Muqaddas Ruh beradigan quvonch bilan Xudoning soʻzini
qabul qildingiz. 7 Shunday qilib, Makedoniya va Axaya viloyatlaridagi* barcha
imonlilarga oʻrnak boʻldingiz. 8 Rabbimizning kalomi sizlardan faqatgina Makedoniya va
Axayaga yoyilib qolmadi, balki sizlarning Xudoga boʻlgan imoningiz hamma joyda
maʼlum boʻldi. Shuning uchun endi bizning biror narsa gapirishimizga hojat qolmadi.
9 Bizni yaxshi qabul qilganingiz haqida, barhayot va haqiqiy Xudoga xizmat qilaylik, deya
butlardan yuz oʻgirib, Xudoga yuz burganingiz haqida hamma gapiryapti. 10 Xudoning
Oʻgʻli Isoning samodan tushishini kutayotganingiz haqida ham gapiryaptilar. Xudo Oʻz
Oʻgʻli Isoni tiriltirgan, Iso bizni kelajakda Xudoning gʻazabidan qutqaradi.

2–BOB

Pavlusning Salonikada qilgan ishlari

1 Birodarlar, oʻzlaringiz bilasiz, sizlarning oldingizga kelganimiz behuda boʻlmadi.
2 Yana oʻzingizga maʼlumki, biz Filippi shahrida* koʻp azob chekkandik, haqoratlarga
uchragandik. Ammo koʻp qarshiliklarga qaramay, Xudoning Xushxabarini sizga aytdik*,
chunki Xudoning Oʻzi bizga jasorat bergan edi. 3 Biz sizlarga taʼlim berganimizda, bizda
na xatolik, na nopok niyat, na biron hiyla bor edi. 4 Axir, Xudo Xushxabarni bizga ishonib
topshirdi, uni yetkazish uchun bizni loyiq topdi. Shunday ekan, biz insonlarni mamnun
qilaylik deb emas, balki yuraklarimizni tekshiradigan Xudoni mamnun qilaylik, deya
taʼlim beramiz. 5 Oʻzlaringiz bilasiz, biz hech qachon tilyogʻlamalik qilmadik, tamagirlik
niyatida gapirmadik. Xudoning Oʻzi bunga shohid. 6 Biz hech kimning — sizlarning ham,
boshqalarning ham maqtoviga sazovor boʻlaylik deb, ish qilmadik.
7 Masihning havoriylari sifatida biz sizlarning oldingizga talablar qoʻyishimiz
mumkin edi. Ammo biz sizlarga bolalarini ardoqlagan emizikli onaday mehribon boʻldik.
8 Sizlarga juda qattiq koʻngil bogʻlagan edik. Shuning uchun sizlarga Xudoning
Xushxabarini aytibgina qolmadik, balki yuragimizdan ham joy berdik. Chunki sizlar
bizga juda aziz boʻlib qolgandingiz. 9 Ey birodarlar, mashaqqat bilan mehnat qilganimiz
yodingizda boʻlsa kerak. Sizlarga Xudoning Xushxabarini aytayotganimizda hech
biringizga yuk boʻlmaylik, deya kechayu kunduz ishladik.
10 Siz — imonlilar bilan boʻlgan munosabatimizda qanday pokdil, solih va benuqson
boʻlganimizga oʻzingiz ham, Xudo ham guvoh. 11 Yana oʻzingiz bilasizki, ota farzandiga
qanday muomala qilsa, biz ham har biringizga shunday muomalada boʻldik. 12 Sizlarga
dalda berdik, yupatdik. Xudoni mamnun qiladigan hayot kechiring, deb sizlarga
yolvordik. Axir, U sizlarni Oʻz Shohligiga va ulugʻvorligiga chorlayapti. 13 Biz tinmay
Xudoga shukur qilishimizning sababi ham shudir. Bizdan Xudoning kalomini
eshitganingizda, buni inson soʻzi sifatida emas, balki Xudoning kalomi sifatida qabul
qildingiz. Bu kalom haqiqatan Xudoning kalomidir. Siz, imonlilarda bu kalom oʻz taʼsirini
koʻrsatyapti.
14 Ey birodarlar, sizlar Xudoning Iso Masihga tegishli boʻlgan Yahudiya oʻlkasidagi
jamoatlariday boʻldingiz. Ular yahudiylardan qanday azob chekkan boʻlsalar, sizlar ham
oʻz yurtdoshlaringiz tomonidan shunday azoblarga yoʻliqdingiz. 15-16 Yahudiylar
paygʻambarlarni va Rabbimiz Isoni oʻldirishgan. Bizni ham quvgʻin qilishdi.

G‘ayriyahudiylarga najot Xushxabarini yetkazishimizga ham to‘sqinlik qilyaptilar. Ular Xudoni mamnun qilmayaptilar, barcha insonlarga qarshi chiqyaptilar. Mana shu ishlari orqali yahudiylarning gunohlari avjiga chiqdi. Va nihoyat, Xudoning g‘azabi ularning boshiga tushdi.

Pavlus Salonika jamoatini borib ko‘rish istagida

17 Ey birodarlar, endi biz dilimiz bilan bo‘lmasa–da, vujudimiz bilan qisqa bir
muddatga sizlardan ayrildik. Ammo sizlarni juda sog‘inib, diydoringizni ko‘rishga jon–
jahdimiz bilan harakat qildik. 18 Ha, biz qayta–qayta sizning oldingizga bormoqchi
bo‘ldik. Ayniqsa men, Pavlus, borishni juda xohlagandim, lekin shayton bunga yo‘l
qo‘ymadi. 19 Axir, bizning umidimiz va quvonchimiz kim?! Rabbimiz Iso kelganda, Uning
oldida faxr tojimiz sizlar emasmi?! 20 Ha, sizlar bizning sharafimiz va quvonchimizsiz!

3–BOB

1-3 Oxiri chiday olmay, ukamiz Timo‘tiyni oldingizga yuborishga qaror qildik. O‘zimiz
esa Afina shahrida qoldik*. Masih haqidagi Xushxabarni targ‘ib etishdagi Xudoning
xizmatida Timo‘tiy bizning hamkorimizdir. Azob–uqubatlar tufayli yo‘ldan
toymasligingiz uchun Timo‘tiy sizlarni imonda mustahkamlab, dalda bersin, dedik.
Qiyinchiliklarga uchrashimiz peshanamizga yozilganini o‘zingiz bilasiz–ku! 4 Axir, azob–
uqubatlarga uchraymiz, deb oldingizda bo‘lganimizda sizlarni ogohlantirgandik. Mana,
biz aytganimizdek bo‘ldi. 5 Shuning uchun ortiqcha sabr qila olmay, imoningiz haqida
bilib kelsin deb, Timo‘tiyni yubordim. Shayton sizlarni vasvasaga solib, ishimizni bekor
qilgan bo‘lsa kerak, deb qo‘rqqan edim.

6 Mana, Timo‘tiy sizlarning oldingizdan qaytib keldi*. Bizga sizlarning imoningiz va
sevgingiz haqida yaxshi xabar olib keldi. Biz sizlarni sog‘inganimizdek, sizlar ham bizni
sog‘inib qolibsiz. Bizni yaxshi so‘zlar bilan eslar ekansiz. Timo‘tiy bularni bizga aytib
berdi. 7 Shunday qilib, birodarlar, qiyinchiliklar va azob–uqubatlarda bo‘lsak ham,
sizlarning imoningiz haqida eshitib, ancha tasalli topdik. 8 Rabbimiz Isoga bo‘lgan
imoningiz qat’iy ekan, endi biz yengil nafas olib yashaymiz. 9 Sizlar tufayli biz Xudo
oldida quvonchga to‘lib yuribmiz. Shunday ekan, qanday qilib Xudoga o‘z
minnatdorchiligimizni bildirmay tura olamiz?! 10 Sizlar bilan yana diydor ko‘rishaylik,
imoningizga imon qo‘shaylik deb, kechayu kunduz jon–jahdimiz bilan ibodat qilyapmiz.

11 Otamiz Xudoning O‘zi va Rabbimiz Iso sizlarning oldingizga borishimiz uchun yo‘l
ochsin. 12 Sizga bo‘lgan mehrimiz to‘lib–toshgani kabi, Rabbimiz sizlarning ham bir–
biringizga va boshqa hammaga bo‘lgan mehr–muhabbatingizga qalbingizni to‘ldirib–
toshirsin. 13 Shunda qalblaringiz sobit bo‘ladi, Rabbimiz Iso O‘z farishtalari* bilan
kelganda, sizlar Otamiz Xudo oldida aybsiz va pok tura olasizlar.

4–BOB

Xudoni mamnun qiladigan hayot kechiring

1 Xullas, ey birodarlar, sizlar Xudoni mamnun qilib yashashni bizdan o‘rgandingiz.
Ha, shu tarzda yashayapsiz ham. Ammo Rabbimiz Iso nomidan sizlarga yolvoramiz,
Xudoni yanada ko‘proq mamnun qilishga astoydil harakat qilavering. 2 Rabbimiz Iso
bizga bergan vakolat bilan sizlarga qanday yo‘l–yo‘riq ko‘rsatganimizni bilasiz.

3 Sizlarning muqaddas bo‘lishingiz Xudoning irodasidir. Shuning uchun jinsiy axloqsizlik
qilmang.
4 Har biringiz muqaddaslik va izzat–hurmatga loyiq tarzda o‘zingizni tuta bilishingiz
kerak. 5 Xudoni bilmagan butparastlarday shahvoniy hirsga qul bo‘lmang. 6 Jinsiy hayot
tarziga kelganda, o‘z birodarlaringizning ishonchini suiiste’mol qilmang, ularga xiyonat
qilmang. Bunday qilganlarni Egamiz jazolaydi. Biz sizlarga bu haqda oldindan aytib,
qattiq ogohlantirganmiz. 7 Xudo bizni harom yo‘ldan yurishga emas, balki muqaddas
bo‘lib yashashga chaqirdi. 8 Shunday ekan, kim mana shu ta’limni rad etsa, insonlarni
emas, sizlarga O‘z Muqaddas Ruhini beradigan Xudoni rad qilgan bo‘ladi.
9 O‘zaro muhabbat haqida esa sizlarga yozishning hojati yo‘q, chunki bir–biringizni
yaxshi ko‘rishni sizlar Xudodan o‘rgangansizlar. 10 Zotan, sizlar Makedoniya* hududi
bo‘ylab yashovchi barcha birodarlaringizga ham shunday munosabatda bo‘lyapsizlar.
Lekin shunga qaramay, ularni yanada ko‘proq yaxshi ko‘ring, deb undaymiz. 11 Sizlarga
aytganimizday, osoyishta hayot kechirishni, o‘z ishingiz bilan mashg‘ul bo‘lishni,
qo‘llaringiz mehnati bilan tirikchilik qilishni o‘z oldingizga maqsad qilib qo‘ying.
12 Shunda Rabbimiz Isoga ishonmaydiganlarning izzat–hurmatini qozonasiz va
boshqalarning qo‘liga qarab qolmaysiz.

Rabbimiz Isoning kelishi

13 Birodarlar, umidsiz yashayotgan boshqa odamlar kabi, qayg‘uga to‘lmang deb, bu
olamdan o‘tganlar haqidagi haqiqatni sizlarga bildirishni xohlaymiz. 14 Biz Isoning o‘lib,
tirilganiga ishonamiz. Shunday ekan, Isoga ishongan holda hayotdan ko‘z yumgan
imonlilarni ham Xudo tiriltirib, O‘z oldiga olib ketishiga aminmiz. Bu voqea Iso kelganda
yuz beradi. 15 Rabbimiz Isoning ta’limoti bo‘yicha sizlarga aytamizki, o‘sha paytda biz —
hali tirik bo‘lganlar o‘lgan birodarlarimizdan oldin emas, balki ular bilan birga Isoni
qarshilab olamiz. 16 Zotan, Rabbimiz Iso Masih buyuk bir sado, bosh farishtaning ovozi
va Xudoning karnayi sadosi ostida samodan tushib kelganda, birinchi bo‘lib Unga
ishongan holda o‘lganlar tiriladi. 17 So‘ng biz — hali tirik bo‘lganlar havoda Rabbimizni
qarshilab olish uchun ular bilan birga bulutlarda ko‘tarilamiz. Shunday qilib, hammamiz
Rabbimiz bilan abadiy birga bo‘lamiz. 18 Shuning uchun mana shu so‘zlar bilan bir–
biringizga dalda bering.

5–BOB

Rabbimiz Iso Masihning kelishiga tayyor bo‘ling

1 Birodarlar, bular qachon, qaysi payt sodir bo‘lishi haqida sizlarga yozishimizning
hojati yo‘q. 2 Axir, Rabbimiz Iso, kechasi o‘g‘ri tushganday, nogahon kelishini o‘zingiz
bilasiz–ku! 3 Homilador ayolning to‘lg‘oq og‘riqlari kutilmaganda kelganday, odamlar:
“Hamma yoq tinch, osoyishta”, deb yurganlarida, birdaniga boshlariga halokat tushadi.
Ular qochib qutula olmaydilar. 4 Biroq, birodarlar, sizlar zulmatda yurmaysizlarki, bu
kun o‘g‘riga o‘xshab, kutilmaganda kelib, sizlarni hayratda qoldirsa! 5 Sizlar yorug‘likda
yashaysiz, hammangiz kunduz kunga tegishlisiz. Axir, biz zulmatga, tunga tegishli
emasmiz. 6 Shuning uchun boshqalarga o‘xshab uxlab qolmaylik. Biz uyg‘oq, hushyor
bo‘lishimiz kerak. 7 Chunki uxlaydiganlar kechasi uxlaydi, ichkilikka berilganlar ham
kechasi ichadi. 8 Biz esa kunduz kunga tegishli ekanmiz, kelinglar, imon va sevgi
sovutini, boshimizga najot umidi dubulg‘asini kiyib, hushyor turaylik. 9 Chunki Xudo

bizni g‘azabga uchrasin deb emas, balki Rabbimiz Iso Masih orqali najot topishimiz uchun tayinladi. 10 Biz tirik bo‘lsak ham, hayotdan ko‘z yumsak ham, U bilan birga yashashimiz uchun Rabbimiz Iso biz uchun o‘ldi. 11 Shuning uchun ham hozir qilayotganingizdek, bundan keyin ham bir–biringizga dalda berib, kuch va g‘ayrat bag‘ishlang.

So‘nggi yo‘l–yo‘riqlar

12 Birodarlar, sizlardan o‘tinamiz: orangizda ishlab, Rabbimiz Isoning yo‘lida sizlarga yetakchilik qilayotgan, yo‘l–yo‘riq ko‘rsatayotganlarni hurmat qiling. 13 Qilayotgan ishlari uchun ularni sevib, e’zozlang. Bir–biringiz bilan tinch–totuv yashang. 14 Ey birodarlar, sizlardan o‘tinib so‘raymiz: ishyoqmaslarni ogohlantiring, jur’atsizlarga dalda bering, zaiflarga yordam ko‘rsating, hammaga sabr–toqatli bo‘ling. 15 Hech biringiz yomonlikka yomonlik qaytarmang, balki har doim bir–biringizga va hammaga yaxshilik qilishga intiling.

16 Hamisha xursand bo‘lib yuringlar. 17 Tinmay ibodat qilinglar. 18 Har qanday sharoitda ham Xudoga shukur qilinglar, chunki sizlar, ya’ni Iso Masihga imon keltirganlar uchun Xudoning irodasi shudir.

19 Muqaddas Ruhning o‘tini so‘ndirmanglar. 20 Bashoratlarni kamsitmanglar. 21 Hammasini tekshirib ko‘ringlar. Yaxshilikni mahkam tutib, 22 har qanday yomonlikdan qochinglar.

23 Tinchlik manbai bo‘lgan Xudoning O‘zi sizlarni butunlay poklasin. Rabbimiz Iso Masih kelguncha, butun ruhingiz, joningiz va tanangiz benuqson saqlansin. 24 Sizlarni da’vat qilgan Xudo sadoqatlidir, U har doim O‘z aytganini bajaradi. 25 Birodarlar, biz uchun ibodat qiling. 26 Hamma birodarlar bilan o‘pishib ko‘rishinglar. 27 Rabbimiz nomi bilan sizlarga buyuraman, mana shu xatni barcha birodarlarga o‘qib beringlar.
28 Rabbimiz Iso Masihning inoyati sizlarga yor bo‘lsin*.

IZOHLAR

1:1 *Silas* — yunoncha matnda bu ismning boshqa varianti *Silvanus*. Silas ilk jamoatning yetakchisi bo‘lib, havoriy Pavlusning Xushxabar yoyish maqsadida qilgan ikkinchi safarida unga hamroh edi (Havoriylar 15:22, 32, 36-41 ga qarang).

1:1 *Timo‘tiy* — ilk jamoatning yetakchisi bo‘lib, havoriy Pavlusning hamkori (Havoriylar 16:1-3, Filippiliklar 2:20-22 ga qarang).

1:1 *Xudoning* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *Otamiz Xudoning va Rabbimiz Iso Masihning*.

1:7 *Makedoniya va Axaya viloyatlari* — Rim imperiyasiga qarashli ikki viloyat. Makedoniya janub tomondan Axaya bilan chegaradosh bo‘lib, poytaxti Salonika edi.

2:2 *Filippi shahri* — Filippi va Salonika shaharlarining ikkalasi ham Makedoniyada joylashgan. Havoriylar 16:16-40 ga qarang.

2:2 *...Xudoning Xushxabarini sizga aytdik...* — Havoriylar 17:1-9 ga qarang.

3:1-3 *...Afina shahrida qoldik* — Havoriylar 17:13-16 ga qarang.

3:6 *...Timo‘tiy sizlarning oldingizdan qaytib keldi* — Pavlus bu paytda Afinadan Korinfga kelgan edi. Timo‘tiy Salonikadan qaytib, Korinfga, Pavlusning oldiga borgan (Havoriylar 18:1, 5 ga qarang).

3:13 *O‘z farishtalari* — bu o‘rinda ishlatilgan yunoncha so‘z Xudoning xalqini nazarda tutgan holda, *O‘z azizlari* deb tarjima qilinsa ham bo‘ladi. Qiyoslash uchun Matto 25:31, Mark 8:38, 2 Salonikaliklar 1:7-8 ga qarang.

4:10 *Makedoniya* — 1:7 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

5:28 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida quyidagi so‘z oyatga qo‘shimcha qilingan: *omin*.

PAVLUSNING
SALONIKALIKLARGA
IKKINCHI MAKTUBI

Kirish

Pavlus Salonikadagi jamoatga yozgan ushbu ikkinchi maktubini birinchi maktubdan keyin, qisqa vaqt oralig‘ida yuboradi. Maktubning boshida Pavlus imonli birodarlariga dalda beradi, ularni qiyinchilik va azob–uqubatlarga qaramay, imonda mahkam turishga undaydi.

So‘ng Pavlus Rabbimiz Isoning kelishi haqida birinchi maktubida bayon qilgan mavzuni batafsil tushuntirishga o‘tadi, chunki Salonikaliklar orasida “Rabbimiz keldi” degan gap yurgan ekan. Bundan xabar topgan Pavlus ularga, Masih hali kelgani yo‘q, deb aytadi. Pavlus, Masih kelishidan oldin bir qator hodisalar ro‘y berishi kerak, deb ta’kidlaydi, chunonchi, odamlar Xudoga qarshi bosh ko‘taradi, qabih odam kelib, Ma’badda Xudoning o‘rnini egallaydi, oqibatda, yovuzlik va fosiqlik dunyoda avj oladi. Shundan so‘nggina Iso kelib, qabih odamni bir nafasi bilan yo‘q qiladi. Maktubning so‘nggi satrlarida Pavlus imonlilarni dangasa bo‘lmaslikka, halol mehnat qilishga, yaxshilik qilishdan charchamaslikka undaydi.

1–BOB

Duoyi salom

1 Otamiz Xudo va Rabbimiz Iso Masihning Salonika shahridagi imonlilar jamoatiga
Pavlus, Silas va Timo‘tiydan* salom! 2 Otamiz Xudo va Rabbimiz Iso Masih sizlarga
inoyat va tinchlik ato qilsin.

Iso Masih kelganda bo‘ladigan hukm

3 Birodarlar, sizlar uchun har doim Xudoga shukr qilishni burch deb bilamiz.
Shunday qilishimiz juda o‘rinli, chunki sizlarning imoningiz kundan–kunga o‘sib
boryapti, bir–biringizga va boshqa hammaga mehr–muhabbatingiz oshyapti. 4 Shuning
uchun biz Xudoning jamoatlari oldida sizlar bilan faxrlanamiz. Axir, sizlar quvg‘inlaru
azob–uqubatlarga sabr–toqat va imon bilan bardosh beryapsiz. 5 Xudoning Shohligi
yo‘lida azob chekyapsiz, shunday ekan, Xudo sizlarni O‘z Shohligiga loyiq topib, unga
erishtiradi. Oqibatda esa Uning odil hukmi hammaga ayon bo‘ladi. 6 Ha, Xudo odildir,
sizlarni azoblaganlarga U azob beradi. 7-8 Azob chekayotgan sizlarga esa O‘z tinchligini
ato qiladi, sizlar qatori bizga ham tinchligini beradi. Bularning hammasi Rabbimiz Iso
O‘zining qudratli farishtalari bilan, lovullab turgan alanga ichida, ko‘kdan zohir
bo‘lganda ro‘y beradi. Xudoni rad etganlarni va O‘zi haqidagi Xushxabarga quloq
solmaganlarni Iso Masih jazolaydi. 9 O‘sha odamlar Rabbimiz Isoning huzuri va qudratli
ulug‘vorligidan ayrilib, abadiy halokat jazosini oladilar. 10 O‘sha kuni Rabbimizni Uning
muqaddas xalqi ulug‘laydi. Unga ishongan hamma odamlar Uni madh qiladi. Sizlar ham
o‘sha insonlarning qatoriga kirasiz, chunki biz aytgan xabarga ishondingiz. 11 Shunday
ekan, Xudoyimiz sizni O‘z chaqirig‘iga loyiq deb topsin, O‘z qudrati bilan sizlarning

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

barcha yaxshi niyatlaringizni ro‘yobga chiqarsin, imon bilan qilgan ishlaringizni amalga oshirsin, deb biz doim sizlar uchun ibodat qilamiz. 12 Rabbimiz Isoning nomi orangizda ulug‘lansin, sizlar esa Xudoyimiz va Rabbimiz Iso Masihning inoyati bilan U orqali ulug‘laninglar, deb ibodat qilamiz.

2–BOB

Qabih odam

1 Rabbimiz Iso Masihning kelishi va bizning U bilan birga bo‘ladigan kunimiz haqida quyidagilarni aytsak: birodarlar, sizlardan o‘tinib so‘raymiz, 2 Rabbimiz kelibdi degan gaplar boshingizni aylantirmasin, sizlarni xavotirga solmasin. Ehtimol, bunday gaplar bashorat orqali, biror xabar yoki xuddi biz yozgan xatga o‘xshash bir xat orqali kelib chiqqandir. 3 Hech kim sizlarni hech qanday usul bilan aldamasin. Ko‘pchilik Xudoga qarshi bosh ko‘tarmaguncha va qabih odam kelmaguncha, o‘sha kun kelmaydi. O‘sha odam halokatga mahkum qilingan. 4 U har qanday “xudo” deb atalgan va sajda qilingan narsaga qarshi chiqib, o‘zini ulardan ustun qo‘yadi. Hattoki, Xudoning Ma’badida o‘tirib olib, o‘zini xudo deb ataydi.

5 Sizlar bilan bo‘lganimda shularni aytganim esingizda yo‘qmi? 6 O‘sha qabih odamni hozir nima tutib turganini o‘zingiz bilasiz. Bu odam belgilangan vaqtda zohir bo‘ladi. 7 Ha, qabihlikning yashirin kuchi allaqachon ishga tushgan. Biroq bir zot bu kuchni tiyib turibdi. O‘sha zot olib tashlangandan keyin, 8 qabih odam oshkor qilinadi. Uni Rabbimiz Iso bir nafas bilan halok qiladi. Rabbimiz kelganda, O‘z ulug‘vorligining yorqinligi bilan uni yo‘q qilib tashlaydi. 9 O‘sha qabih odam shaytonning kuchi bilan keladi. Qudratini ko‘rsatib, har xil mo‘jizayu ajoyibotlar qiladi. 10 Halok bo‘layotganlarni turli makr–hiylalar bilan aldaydi. Ular najot beradigan haqiqatni rad qilganlari uchun, uni sevmaganlari uchun halok bo‘lyaptilar. 11 Mana shuning uchun Xudo ularni adashtiradigan bir kuchga topshirib qo‘yadi. Shunda ular yolg‘onlarga ishonib yuraveradilar. 12 Natijada, haqiqatga ishonmay, yovuzlikdan zavq topganlarning hammasi hukm qilinadi.

Imoningiz qat’iy bo‘lsin

13 Ey Egamiz sevgan birodarlar! Sizlar uchun har doim Xudoga shukr qilishni burch deb bilamiz. Axir, Muqaddas Ruh kuchi bilan poklansin va haqiqatga ishonsin deb, Xudo sizlarni boshidanoq najot uchun tanlagan edi. 14 Rabbimiz Iso Masihning ulug‘vorligidan bahramand bo‘lishingiz uchun biz aytgan Xushxabar orqali Xudo sizlarni chaqirdi. 15 Shuning uchun, ey birodarlar, imoningiz qat’iy bo‘lsin. Biz gaplarimiz va xatlarimiz orqali sizlarga o‘rgatgan haqiqatni mahkam tutinglar.

16 Bizni sevadigan, O‘z inoyati bilan bizga tengsiz jasorat va barqaror umid bergan Otamiz Xudo va Rabbimiz Iso Masihning O‘zi 17 sizlarga dalda bersin, har bir qilgan yaxshi ishingiz va so‘zingizda sizlarga kuch ato qilsin.

3–BOB

Biz uchun ibodat qilinglar

1 Ey birodarlar, xatimiz ham nihoyasiga yetib qoldi. Biz uchun ibodat qilinglar, xuddi sizlarning orangizda bo‘lgani kabi, Rabbimiz Iso haqidagi Xushxabar tarqalaversin va

izzat–hurmat bilan qabul qilinsin. 2 Xudo bizni yomon va yovuz odamlardan qutqarishi
uchun ham ibodat qilinglar, chunki hamma ham imonli emas. 3 Ammo Rabbimiz Iso
sadoqatlidir. U sizlarni kuchga to‘ldirib, yovuz shaytondan himoya qiladi. 4 Siz
haqingizda Rabbimiz bizda ishonch hosil qildi. Biz aminmizki, buyurganlarimizni
bajaryapsizlar va bajarishda davom etasizlar. 5 Rabbimiz Iso Masih yuraklaringizni Unga
sodiq bo‘lishga va Xudoni sevishga yo‘naltirsin.

Ishlagan tishlaydi

6 Birodarlar, Rabbimiz Iso Masih nomi bilan sizlarga buyuramiz: dangasalik
qilayotgan, biz bergan ta’limotlarga ko‘ra yashamayotgan birodarlardan uzoqroq
yuring. 7 Bizdan qanday o‘rnak olishingiz kerakligini o‘zingiz bilasiz. Sizlarning
orangizda bo‘lganimizda dangasalik qilmadik. 8 Birovning nonini bekorga yemadik.
Aksincha, boshqalarga og‘irligimiz tushmasin deb, kechayu kunduz ishladik. Mashaqqat
bilan mehnat qildik. 9 Albatta, sizlardan biror narsa talab qilishga haqimiz yo‘qligi uchun
emas, balki sizlarga namuna bo‘lish uchun shunday qildik. 10 Axir, sizlar bilan
bo‘lganimizda: “Ishlamagan tishlamaydi!” deb aytgan edik–ku!

11 Eshitishimizcha, ba’zi birlaringiz yalqovlik qilayotgan ekansiz. Boshqalarning
ishlariga aralashishdan boshqa narsani bilmas emishsiz. 12 Mana shunday odamlarga Iso
Masih nomi bilan buyurib aytamizki, tinchgina o‘z ishlaringiz bilan mashg‘ul bo‘ling,
nonni peshana teringiz bilan topib yeng. 13 Sizlar esa, birodarlar, hech qachon yaxshilik
qilishdan charchamanglar.

14 Ushbu xatimizdagi yo‘l–yo‘riqlarga quloq solmaganlarni ko‘z ostingizga olib
qo‘ying. Bunday odamlarni uyaltirish uchun ular bilan aloqada bo‘lmang. 15 Ularni
dushman hisoblamang, balki birodar sifatida ogohlantiring.

Xotima

16 Tinchlik manbai bo‘lgan Rabbimiz Isoning O‘zi sizlarga har doim va har yo‘sinda
tinchlik bersin. Rabbimiz hammangizga yor bo‘lsin.

17 Men, Pavlus, mana shu maktubning yakunini o‘z qo‘lim bilan yozyapman*. Har bir
yozgan maktubimning o‘ziga xos belgisi shudir. 18 Rabbimiz Iso Masihning inoyati
hammangizga yor bo‘lsin!*

IZOHLAR

1:1 *Silas…Timo‘tiy* — 1 Salonikaliklar 1:1 ning birinchi va ikkinchi izohlariga qarang.

3:17 *…shu maktubning yakunini o‘z qo‘lim bilan yozyapman* — 1 Korinfliklar 16:21 izohiga qarang.

3:18 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida quyidagi so‘z oyatga qo‘shimcha qilingan: *omin*.

PAVLUSNING
TIMO‘TIYGA
BIRINCHI MAKTUBI

Kirish

Mazkur maktub muallifi havoriy Pavlusdir. Pavlus bu maktubini o‘z o‘g‘liday bo‘lib qolgan yaqin xizmatdoshi va yordamchisi Timo‘tiyga yozgan. Maktub yozilgan paytda Timo‘tiy Efes shahrida edi.

Timo‘tiy Listralik edi. Listra shahri hozirgi Turkiya hududida joylashgan. Timo‘tiyning onasi Iso Masihga imon keltirgan yahudiy, otasi esa yunon edi. Timo‘tiy Pavlus bilan birga Efes va Korinf shaharlariga, shuningdek, Makedoniyaga borib, Xushxabarni targ‘ib qilish xizmatida Pavlusga yordam bergandi. Safarga chiqishlaridan oldin Pavlus yahudiylarni vasvasaga solmaslik uchun Timo‘tiyni sunnat qildirgandi (Havoriylar 16:1-3 ga qarang). Timo‘tiy havoriy hisoblanmasa–da, imonlilar jamoati uchun ko‘p xizmat qilgan sadoqatli masihiy bo‘lgan.

Pavlus ushbu maktubida Timo‘tiyga ko‘p nasihatlar beradi, Efesdagi jamoatga qanday g‘amxo‘rlik qilish kerakligini o‘rgatadi. U birinchi navbatda Timo‘tiyni soxta ta’limotlar to‘g‘risida ogohlantiradi. O‘sha davrda jamoatlarda soxta ta’limotlar keng tarqalgandi. Bu ta’limotlar yahudiylar va g‘ayriyahudiylarning e’tiqodlari chatishuvidan paydo bo‘lib, moddiy dunyo harom, najotga esa faqat sirli bilimni o‘zlashtirish orqali erishsa bo‘ladi degan g‘oyani ilgari surardi. Bunday bid’atlar ba’zi ovqatlarni iste’mol qilishni va uylanishni man etardi. Pavlus bu ta’limotlarni fosh etib, Timo‘tiyga haqiqiy xudojo‘ylik bilan hayot kechirish haqida nasihat qiladi.

Maktubning davomida Pavlus duo va ibodatlarga oid ko‘rsatmalar beradi, jamoatdagi tartib, jamoat yetakchilari va xizmatchilariga zarur bo‘lgan xislatlari haqida so‘z yuritadi, yoshu qarilar, bevalar, oqsoqollar, qul va xo‘jayinlar orasidagi munosabatlarga oid maslahatlar beradi, boy birodarlarga nasihat qiladi. Pavlus maktubini Timo‘tiyga bergan so‘nggi pand–nasihatlari bilan yakunlab, Timo‘tiyning zimmasidagi vazifalarini eslatib o‘tadi.

1–BOB

Duoyi salom

1 Najotkorimiz Xudoning va biz umid bog‘lagan Iso Masihning amriga ko‘ra,
Masihning havoriysi etib tayinlangan men — Pavlusdan 2 imondagi sodiq o‘g‘lim
Timo‘tiyga* salom! Otamiz Xudo va Rabbimiz Iso Masih senga inoyat, marhamat va
tinchlik ato qilsin.

Soxta ta’limotlardan ehtiyot bo‘l

3 Men Makedoniyaga ketayotganimda, senga tayinlaganimday, Efes shahrida qol. U
yerdagi ba’zi kishilar soxta ta’limotni o‘rgatayotgan ekanlar. Ularning bu qilmishlariga
barham ber. 4 Ularga, afsonalar va shajaralar* xususidagi bema’ni bahslar bilan band
bo‘lmanglar, deb buyur. Axir, bunday bahslar faqat janjallarga sabab bo‘ladi. Odamlar

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

Xudoning najot rejasini anglashlariga bular yordam bermaydi. Zero, inson Xudoning najotini imon orqaligina anglab oladi. 5 Men bu nasihatim bilan sizlarda mehr–muhabbat uyg‘otmoqchiman. Mehr–muhabbat sof yurakdan, toza vijdondan, xolis imondan hosil bo‘ladi. 6 Orangizdagi ba’zi odamlar esa bulardan yuz o‘girib, ahmoqona bahslarga berilib ketganlar. 7 Ular odamlarga Xudoning qonunini* o‘rgatishni orzu qiladilar, qonunga tishi o‘tmasa–da, u haqda so‘zlab, ishonch bilan gapiradilar.

8 Biz bilamizki, qonundan Xudo ko‘zlaganday foydalanilsa qonun yaxshidir!
9 Xudoning qonuni solihlar uchun emas, balki qonunsizu itoatsizlar uchun berilgani hammamizga ma’lum. Darhaqiqat, qonun betavfiqu gunohkorlar, diyonatsizu xudobezorilar, ota yoki onasini o‘ldirganlar, qotillar, 10 fahshbozlar, bachchabozlar, odam savdosi bilan shug‘ullanuvchilar, yolg‘onchilaru soxta guvohlik beruvchilar, xullas, sog‘lom ta’limotga zid ish qilayotganlarning hammasi uchun berilgan. 11 Xudo menga ishonib topshirgan bu haqiqat Xushxabarda bayon qilingan. Muborak Xudoning ulug‘vorligi Xushxabarda ayon etilgan.

Pavlus Xudoga shukrona aytadi

12 Ishimni bajarishda menga kuch–quvvat bergan Rabbimiz Iso Masihga shukurlar aytaman. U meni ishonchli deb bilib, O‘z xizmatiga olgani uchun g‘oyatda minnatdorman. 13 Men ilgarilari Masihga qarshi chiqar edim, Uning izdoshlarini ta’qib etib, ularga jabr–zulm qilardim. Biroq, shularga qaramay, Xudo menga rahm qildi, axir, men Masihga ishonmaganim uchun nima qilayotganimni o‘zim ham bilmasdim.
14 Rabbimiz Iso Masih menga cheksiz inoyat ko‘rsatdi. Uning O‘zi menga imon ato qilib, mehru oqibatni o‘rgatdi. 15 “Iso Masih gunohkorlarni qutqarish uchun dunyoga keldi” degan gap to‘g‘ri va asoslidir, har jihatdan qabul qilinishga loyiqdir. Men o‘zim o‘sha gunohkorlarning eng ashaddiysi edim! 16 Ammo Iso Masih menga rahm qildi. Menga o‘xshagan o‘taketgan gunohkorlarga nisbatan U nihoyatda sabrli ekanini ko‘rsatdi, toki boshqalar ham mendan ibrat olib, Unga ishonsinlar, abadiy hayotga ega bo‘lsinlar.
17 Mangu Shohga hamdu sanolar bo‘lsin! O‘lmas, ko‘rinmas, yagona Xudoga* abadulabad shon–sharaflar bo‘lsin! Omin.

18 Ey o‘g‘lim Timo‘tiy, sen haqingda ilgari aytilgan bashoratlarga* binoan senga buyuraman: o‘sha bashoratlarga tayanib, ulug‘ kurashda jang qilgin. 19 Imoningni mahkam tut, vijdonli bo‘l. Ba’zi odamlar vijdonini sotdilar, ularning imoni halokatga uchragan kemaday barbod bo‘ldi. 20 Xumanayos* va Iskandar shular jumlasidandir. Men ularni shaytonga topshirdim*. Bu ularga saboq bo‘lib, ular Xudoga va Uning azizlariga qarshi chiqishni bas qiladilar.

2–BOB

Duo va ibodatlarga oid ko‘rsatmalar

1 Avvalambor, nasihatim shuki, butun insoniyat uchun iltijo qilinglar, toat–ibodatda bo‘lib, duolar o‘qinglar, shukronalar aytinglar. 2 Taqvodor, obro‘–e’tiborli, osoyishta, sokin hayot kechirishimiz uchun, hukmdorlaru boshliqlar uchun ibodat qilinglar. 3 Bu xayrli ish bo‘lib, najotkorimiz Xudoga maqbuldir. 4 U hamma insonlarning najot topishlarini va haqiqatni bilib olishlarini istaydi. 5 Zero, hammamizga ma’lumki,

Xudo yagonadir,

Xudo bilan insonlar orasidagi
Vositachi ham yagonadir.
Bu Vositachi Iso Masihdir.
U O‘zi inson edi
6 Va butun insoniyatni qutqarish uchun
O‘z jonini fido qildi.

Shu orqali Xudo O‘zi belgilagan paytda najot rejasini ayon etdi. 7 Men najot haqidagi bu xabarni e’lon qiluvchi havoriy etib tayinlandim. To‘g‘risini aytyapman*, yolg‘on gapirayotganim yo‘q! Haqiqatan ham, men turli xalqlarga imon va haqiqatni o‘rgatish uchun yuborilganman.

8 Erkaklar* hamma joyda qo‘llarini duoga ochib, chin qalbdan ibodat qilsinlar. Ular g‘azab va nizodan yiroq bo‘lsinlar. 9 Xotinlar soddagina, did bilan kiyinsinlar. Ular sochiga ortiqcha oro bermay, oltin va marvarid taqinchoqlar yoki qimmatbaho kiyimlar bilan emas, balki or–nomus bilan bezansinlar. 10 Xudojo‘y xotinlarga munosib xayrli ishlar bilan o‘zlariga zeb bersinlar. 11 Ta’lim berilayotganda, xotinlar sukut saqlasin, muallimning gapini ikki qilmasin*. 12 Xotin erkakka ta’lim berishiga* va uning ustidan o‘z hukmini o‘tkazishiga ruxsat bermayman. Xotin sokin tabiatli bo‘lsin. 13 Axir, oldin Momo Havo emas, balki Odam Ato* yaratilgan–ku. 14 Odam Ato emas, xotin shaytonga aldanib, gunoh qildi. 15 O‘shandan buyon, xotinlar tuqqanda la’nat tufayli* dardu azob chekadigan bo‘ldilar. Biroq shunga qaramay, agar ular kamtaru bama’ni bo‘lishsa, Masihga bo‘lgan imonda sobit qolib, mehr–oqibatli bo‘lib, taqvodor hayot kechirishsa, najot topadilar.

3–BOB

Jamoat yetakchisining xislatlari

1 “Imonlilar jamoatining yetakchisi bo‘lishga intilgan inson olijanob ishni orzu qilgan bo‘ladi” degan gap to‘g‘ri va asoslidir. 2 Darhaqiqat, bunday olijanob vazifaga tayinlanadigan inson yaxshi nom chiqargan bo‘lishi shart. U o‘z xotiniga vafodor*, mulohazali, vazmin, odobli, mehmondo‘st, ta’lim berishga qobiliyatli bo‘lsin. 3 U mayxo‘r, jahldor, janjalkash emas, balki muloyim, pulparastlikdan yiroq, 4 xonadonini yaxshi boshqaradigan, farzandlari unga bo‘ysunib hurmat qiladigan bo‘lsin. 5 Agar yetakchi o‘z xonadonini boshqara olmasa, Xudoning jamoatiga qanday g‘amxo‘rlik qila oladi?! 6 Endigina imonga kirgan odam yetakchi bo‘lmasin, tag‘in kerilib, iblisning halokatli changaliga tushib qolmasin*. 7 U jamoatga qarashli bo‘lmagan odamlar orasida ham hurmat–e’tiborga ega bo‘lsin. Shunda u malomatga qolmaydi, shaytonning tuzog‘iga tushmaydi.

Jamoat xizmatchisining xislatlari

8 Imonlilar jamoatining xizmatchilari ham hurmatga sazovor, samimiy insonlar bo‘lishlari lozim. Ular mayxo‘r yoki molparast bo‘lmasinlar. 9 Xudo bizga ayon etgan haqiqat bo‘yicha yashab, barcha ishni vijdonan bajarsinlar. 10 Ular avval sinovdan o‘tishi kerak. Agar kamchiliksiz bo‘lsalar, xizmatga tayinlansinlar. 11-12 Har bir xizmatchi o‘z xotiniga vafodor*, farzandlarini va xonadonini yaxshi boshqaradigan odam bo‘lishi shart. Xizmatchi ayollar* ham hurmatga sazovor bo‘lishlari lozim. Ular g‘iybat

qilmaydigan, mayxo‘rlikka berilmagan, har narsada ishonchli bo‘lsinlar. 13 Jamoatdagi
o‘z xizmatini yaxshi bajarganlar el orasida taniladilar. Ular Iso Masihga bo‘lgan imonda
yuksak jasoratga ega bo‘ladilar.

Xudo ayon etgan haqiqat

14-15 Men yaqin orada oldingga boraman degan umiddaman. Bordi–yu, kechiksam,
Xudoning xonadonida odamlar o‘zlarini qanday tutishlari kerakligini bilishing uchun
bularni senga yozdim. Zero, jamoat barhayot Xudoga tegishlidir, jamoat haqiqatning
poydevori va ustunidir. 16 Darhaqiqat, Xudo bizga ayon etgan haqiqat buyukdir. Asl
xudojo‘ylikning manbai bo‘lmish bu haqiqat quyidagichadir*:

Masih* yer yuziga inson bo‘lib keldi.
Yangi, ulug‘vor hayot uchun o‘likdan tirilib,
Xudoning O‘g‘li deb tasdiqlandi*.
U zohir bo‘ldi farishtalarga*.
U haqdagi Xushxabar e’lon etildi xalqlarga,
Dunyo bo‘ylab odamlar Unga imon keltirdi.
Ulug‘vorlikka burkanib U samoga yuksaldi.

4–BOB

Soxta ustozlarning yolg‘on ta’limoti fosh etiladi

1 Xudoning Ruhi yaqqol aytyaptiki, oxirgi zamonlarda ba’zi odamlar imondan
qaytadilar. Ular yolg‘onchi ruhlarga va jinlar ta’limotiga quloq soladilar. 2 Bunday
ta’limotni tarqatgan odamlar riyokor va yolg‘onchidirlar. Ularning vijdoni o‘lgan, go‘yo
qizdirilgan temir bilan kuydirilib yo‘q qilingan. 3 Ular uylanishni va erga tegishni man
etadilar, ma’lum ovqatlarni taqiqlaydilar. Holbuki, bu ovqatlarni Xudo bergan. Haqiqatni
bilib olgan imonlilar Unga shukrona aytib, yeyishlari uchun yaratgan. 4 Chunki Xudo
yaratgan har bir narsa yaxshidir. Biz hech bir taomni taqiqlamay, shukrona aytib,
hammasini yeyishimiz lozim. 5 Biz ovqatimiz uchun Xudoga shukurlar aytganimizda,
Xudo barcha ozuqani halol deb e’lon qilganini e’tirof etgan bo‘lamiz.

Iso Masihning sodiq xizmatkori bo‘lgin

6 Sen bu nasihatlarimni birodarlaringga o‘rgatsang, Iso Masihning layoqatli
xizmatkori bo‘lasan. O‘zing rioya qilayotgan sog‘lom ta’limotni va imonimizning
aqidalarini o‘zlashtirib, ruhan oziqlanib borasan. 7 Safsataboz kampirlarga xos bema’ni
afsonalardan* yuz o‘gir. Xudojo‘y bo‘lishga astoydil harakat qil. 8 Axir, shunday bir
maqol bor–ku: “Jismoniy mashq tana uchun foyda berar, xudojo‘ylik esa har tomonlama
foyda keltirar, u dunyoyu bu dunyoda hayot baxsh etar.” 9 Bu gap to‘g‘ri va asoslidir, u
har jihatdan qabul qilinishga loyiqdir. 10 Odamlar abadiy hayotga ega bo‘lishlari uchun
biz jon–jahdimiz bilan xizmat qilyapmiz*. Barhayot Xudoga umid bog‘laganmiz. U
barcha insonlarning, ayniqsa imonlilarning Najotkoridir*.

11 Sen birodarlarga ta’lim bergin, bu o‘gitlarga rioya qilishlarini ularga o‘rgatgin.
12 Yoshsan deb, hech kim seni kamsitmasin. Aksincha, hammaning hurmatini qozonish
uchun sen so‘zda, yurish–turishda, mehr–oqibatda, imonda va axloqda imonlilarga
o‘rnak bo‘lgin. 13 Men oldingga borgunimcha jamoatda Muqaddas bitiklarni ovoz

chiqarib o‘qishga*, nasihat va ta’lim berishga vaqtingni bag‘ishla. 14 O‘zingga berilgan
in’omga* e’tiborli bo‘l, uni ishga sol. Axir, sen bu in’omingni aytilgan bashoratlar va
oqsoqollar ustingga qo‘l qo‘yib qilgan duolari natijasida olgansan.
15 Aytganlarimning hammasini amalda qo‘lla. O‘zingni bu vazifaga sidqidildan
bag‘ishla, shunda sen Xudoning yo‘lida shaxdam qadam bilan, ildamlab borayotganingni
hamma ko‘radi. 16 Hayot tarzingga, nimalar o‘rgatayotganingga e’tibor qil. Bu
faoliyatingni astoydil davom ettir, shunday qilsang, o‘zingni ham, tinglovchilaringni ham
qutqarasan.

5–BOB

Imonlilar jamoatidagi munosabatlarga oid ko‘rsatmalar

Yoshu qariyalar

1 Yoshi katta odamga qattiq gapirma, uni otang o‘rnida ko‘rib, hurmat bilan nasihat
qil. Yoshlarga ukalaringdek, 2 kampirlarga onalaringdek munosabatda bo‘l. Yosh
ayollarni singillaring o‘rnida ko‘rib, ularga pokdillik bilan nasihat qil.

Bevalar

3 Suyanchig‘i yo‘q beva xotinlarga g‘amxo‘rlik qil. 4 Agar bevaning bolalari yoki
nabiralari bor bo‘lsa, ular, eng avvalo, o‘z oilasi oldidagi, Xudo buyurgan farzni ado etib,
farzandlik burchini bajarsinlar, chunki bu Xudoga maqbuldir. 5 Yolg‘iz qolgan,
suyanchig‘i yo‘q beva xotin butun umidini Xudoga bog‘lab, kechayu kunduz toat–ibodat
qiladi. 6 Ammo kayf–safoga berilib ketgan beva xotin ruhan o‘likdir. 7 Bevalarga va
ularning oila a’zolariga bularni o‘rgat, toki ular malomatga qolmasinlar. 8 Zero, o‘z
qarindoshlariga, xususan, oila a’zolariga g‘amxo‘rlik qilmagan kishi imonni inkor etgan
bo‘ladi. U imonsizdan ham battardir.
9 Tullar ro‘yxatiga* faqatgina oltmish yoshdan oshgan, marhum eriga vafodor
bo‘lgan* beva ayollarni kirit. 10 Bu ayollar qilgan ezgu ishlari bilan tanilgan, ya’ni
bolalariga yaxshi tarbiya bergan, musofirlarga mehmondo‘st bo‘lgan, Xudo azizlarining
oyoqlarini yuvgan*, qiynalganlarga yordam bergan, o‘zlarini turli xil xayrli ishlarga
bag‘ishlagan bo‘lishlari lozim.
11-12 Beva qolgan yoshroq xotinlarni ro‘yxatga kiritma. Chunki ularning ehtirosi
junbishga kelganda, erga tegishni istab qoladilar. Shunda ular erga tegmaslik haqidagi
Masihga bergan va’dasini buzib, odamlar orasida yomon otli bo‘lib qoladilar. 13 Bundan
tashqari, ular boshqa bir xatarga yo‘liqadilar: yalqovlikka berilib, uyma–uy yurishga
o‘rganib qoladilar. Shunisi yetmaganday, g‘iybat qilishga, boshqalarning ishiga burun
suqib, lozim bo‘lmagan narsalarni gapirishga odatlanadilar. 14 Shu sabablarga ko‘ra, men
yosh bevalarning erga tegishini istardim. Ular bola tug‘ib, ro‘zg‘or ishlari bilan mashg‘ul
bo‘lsinlar, g‘animlarimizning yomon gapirishlariga imkon yaratib bermasinlar. 15 Chunki
shundoq ham ba’zi bevalarimiz to‘g‘ri yo‘ldan ozib, shayton yo‘liga kirib ketdilar.
16 Agar birorta imonli ayolning* beva qolgan qarindoshlari bo‘lsa, ularga o‘zi yordam
bersin, bu vazifani imonlilar jamoatiga yuklamasin. Shunda suyanchig‘i yo‘q beva
xotinlarga jamoat yaxshiroq yordam bera oladi.

Jamoat oqsoqollari

17 Imonlilar jamoatini yaxshi boshqarayotgan, xususan, astoydil va’z aytib, ta’lim

berayotgan oqsoqollar hurmatga sazovordirlar, ular qilgan mehnatlariga yarasha taqdirlansinlar. 18 Zero, Muqaddas bitiklarda: “G‘alla yanchayotgan ho‘kizning og‘zini to‘smang”* va “Mehnatkash ish haqini olishga munosibdir”*, — deyilgan. 19 Ikki yoki uch guvoh bo‘lmasa, hech bir oqsoqolga qo‘yilgan aybni qabul qilma. 20 Gunoh qilib yurgan oqsoqollarni esa hammaning oldida fosh qilib, tavbaga chaqir, toki boshqalarning ham diliga qo‘rquv kirsin. 21 Xudo, Iso Masih va tanlangan farishtalar* huzurida senga qat’iy buyuraman: hech bir ishda yuz–xotirchilik va tarafkashlik qilmay, bu ko‘rsatmalarimga rioya qil.

22 Biror odamni jamoat oqsoqoli vazifasiga tayinlashga shoshilma, tag‘in birovning gunohlariga sherik bo‘lib qolma. O‘zingni pok saqla. 23 Lekin suv ichish bilan cheklanib qolmay, ozginadan sharob ham ichib tur*. Bu oshqozoningga yaxshi ta’sir qilib, tez–tez yuz berayotgan kasalliklaringning oldini oladi. 24 Ba’zi odamlarning gunohlari hozirdan ochiq–oshkor bo‘lib, hatto qiyomat kunidan oldin fosh bo‘lmoqda. Boshqalarning gunohlari esa oxiratda ma’lum bo‘ladi. 25 Shuningdek, qilingan xayrli ishlar ham oshkordir. Ba’zilari oshkor bo‘lmasa–da, baribir pinhon qolmaydi.

6–BOB

Xo‘jayinlar va qullar

1 Qullik bo‘yinturug‘i ostida bo‘lganlar o‘z xo‘jayinlarini kamoli ehtiromga loyiq hisoblasinlar. Toki, hech kim Xudoning nomini va ta’limotini haqoratlamasin.
2 Xo‘jayinlari imonli bo‘lgan qullar, “bir–birimizga birodarmiz”, deb xo‘jayinlariga hurmatsizlik qilmasinlar. Aksincha, yanada ko‘proq tirishib, ularga xizmat etsinlar. Chunki aziz birodarlari bo‘lmish xo‘jayinlari o‘z qullarining farovonligini ko‘zlab, nonini but qilyaptilar.

Ana shu barcha ko‘rsatmalarim haqida ta’lim berib, nasihat qil.

Soxta ustozlarning asl qiyofasi

3 Agar kim begona ta’limotni yoysa va Rabbimiz Iso Masihning haqiqiy kalomiga qarshi chiqib, xudojo‘ylikka chorlovchi ta’limotimizni rad etsa, 4 u bosar–tusarini bilmay qolgan nodondir. Bunday odam biror masala borasida talashish va ikir–chikir gaplar haqida bahslashish kasaliga yo‘liqqan, uning g‘alamisona gaplari hasad, janjal, tuhmat, tuban gumonlar 5 va to‘polonlarga sabab bo‘ladi. Fikri buzuq bunday odamlar haqiqatdan mahrumdirlar. Ular soxta xudojo‘yligini foyda manbai deb biladilar*.
6 To‘g‘ri, xudojo‘ylikdan foyda katta, qachonki biz bori bilan qanoatlansak. 7 Axir, biz bu dunyoga hech narsa olib kelmadik va undan hech narsa olib keta olmaymiz. 8 Qornimiz to‘q, ustimiz but bo‘lsa, shular bilan qanoat qilaylik. 9 Boylikka o‘ch bo‘lganlar esa vasvasa tuzog‘iga tushadilar, ular ko‘p bema’ni va zararli havaslarga berilib, halokat girdobiga g‘arq bo‘ladilar. 10 Pulparastlik har qanday yomonlikning negizidir. Mana, ba’zilar boylik ketidan quvib, imondan qaytib ketdilar va o‘zlarini ko‘pgina azoblarga duchor qildilar.

Timo‘tiyga so‘nggi buyruqlar

11 Ey Xudoning quli Timo‘tiy, sen esa o‘zingni bu illatlardan olib qoch. Solihlik, xudojo‘ylik, imon, sevgi, sabr–toqat va muloyimlikning payida bo‘l. 12 Abadiy hayotga erishish maqsadida, imon uchun bo‘ladigan ulug‘ kurashda jang qil. Axir, Xudo seni

abadiy hayotga da’vat etgan. Sen bu hayotga ega bo‘lish uchun ko‘p guvohlar oldida Iso Masihga bo‘lgan imoningni mardlarcha tan olgansan. 13 Po‘ntiy Pilat* qoshida haqiqatni mardlarcha tan olgan Iso Masih huzurida va butun borliqqa hayot bag‘ishlagan Xudo huzurida senga buyuraman: 14 zimmangdagi xizmatingni halollik bilan bajar. Rabbimiz Iso Masih keladigan kungacha o‘zingni gap tegmaydigan qilib tut. 15 Yagona muborak Hokim bo‘lgan Xudo O‘zi belgilagan paytda Iso Masihni yuboradi. Xudo shohlarning Shohi, hukmdorlarning Hukmdoridir. 16 U yagona mangu Xudodir. U yaqinlashib bo‘lmaydigan nurda yashaydi, Uni hech bir inson ko‘rmagan hamda ko‘rishi mumkin emas. Abadiy saltanat Sohibi bo‘lgan Xudoga shon–sharaflar bo‘lsin! Omin.

Boy birodarlar uchun nasihatlar

17 Bu dunyoda boylik topgan birodarlarga ayt, mag‘rurlanmasinlar, bevafo boylikka umid qilmasinlar. Aksincha, umidini Xudoga bog‘lasinlar. Xudo bizga hamma narsani xursand bo‘lishimiz uchun saxovat bilan beradi. 18 Ularga buyur, yaxshilik qilsinlar, xayrli ishlarga boy, saxiy, ochiq qo‘l bo‘lsinlar. 19 Shunda ular asl xazina to‘plab, kelgusi dunyo uchun o‘zlariga mustahkam zamin yaratgan bo‘ladilar, haqiqiy hayotga erishadilar.

Timo‘tiyga so‘nggi pand–nasihatlar

20 Ey Timo‘tiy, senga ishonib topshirilgan Xushxabarni* asragin. Xudodan uzoqlashtiradigan quruq gaplaru haqiqatga zid bo‘lgan ta’limotlardan qochgin. Ba’zi odamlar adashib, bularni “bilim” deb ataydilar. 21 Bunday “bilim”ga tayangan ba’zilar haq yo‘ldan ozdilar.

Xudoning inoyati sizlarga yor bo‘lsin*.

IZOHLAR

1:2 *imondagi sodiq o‘g‘lim Timo‘tiy* — Timo‘tiy Pavlusning o‘z o‘g‘li emas edi. U Pavlusning sodiq yordamchisi bo‘lgani uchun Pavlus uni, o‘g‘lim, derdi. Havoriylar 16:1-3, Filippiliklar 2:20-22 ga qarang.

1:4 *afsonalar va shajaralar* — Eski Ahd qahramonlari haqida xalq ichida to‘qilgan hikoyalar va ta’limotlar nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin. Bu hikoyalar Eski Ahdda yo‘q, ammo ko‘pchilik ularni Xudodan kelgan, katta ahamiyatga ega, deb aytardilar va shularga asoslanib ta’lim berardilar.

1:7 *Xudoning qonuni* — Eski Ahdga, xususan, Tavrotga ishora.

1:17 *yagona Xudo* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *yagona dono Xudo*.

1:18 *sen haqingda ilgari aytilgan bashoratlar* — 4:14 da bayon qilingan voqeaga yoki undan oldin sodir bo‘lgan boshqa bir yozib qoldirilmagan voqeaga ishora.

1:20 *Xumanayos* — 2 Timo‘tiy 2:17-18 ga qarang.

1:20 *Men ularni shaytonga topshirdim* — Pavlus ularni jamoatdan haydab yuborgan. Bundan maqsad shu ediki, jamoatdan tashqarida ular shaytonning va o‘z gunohlarining halokatli ta’siri ostida bo‘lib, vaqti kelganda tavba qilishlari mumkin edi. Yana 1 Korinfliklar 5:4-5, 11-13 ga qarang.

2:7 *To‘g‘risini aytyapman…* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *Masih haqi, to‘g‘risini aytyapman*.

2:8 *Erkaklar* — yunoncha matnda *aner*. Bu so‘zni *erlar* deb tarjima qilsa ham bo‘ladi. Odatda Pavlus *aner* so‘zini uylangan erkaklarga nisbatan ishlatgan. Shu bobning 8-15–oyatlaridagi ko‘p yunoncha so‘zlar 1 Butrus 3:1-7 oyatlarda ham ishlatilgan va har ikkala kitobdagi bu parchalar mazmunan bir–biriga juda yaqin. Butrus o‘sha oyatlarda er–xotinlik munosabatlari haqida ta’lim bergani bois, ba’zi olimlar Pavlusning bu o‘rindagi ta’limotini er–xotinlik munosabatlari haqidagi ta’limot deb tushunadilar. Yana shu bobning 11, 12–oyatlari izohlariga qarang.

2:11 *Ta’lim berilayotganda, xotinlar sukut saqlasin, muallimning gapini ikki qilmasin* — yunoncha matnda *Xotin sukutda va to‘la itoatkorlik bilan o‘rgansin*.

2:12 *Xotin erkakka ta’lim berishiga…* — yoki *Xotin eriga buyruq berishiga…*.

2:13 *Momo Havo…Odam Ato* — Ibtido 2:7, 18, 21-23, 3:1-13 ga qarang.

2:15 *…la’nat tufayli…* — Ibtido 3:16 ga qarang.

3:2 *…o‘z xotiniga vafodor…* — yunoncha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *…bir ayolning eri…*. Pavlus yashagan davrda ko‘p xotinlik jamiyat tomonidan qabul qilinmagan, shu bois kam uchragan. Shuning uchun Pavlus ko‘p xotinlikni nazarda tutmagan bo‘lishi mumkin. Bu yunoncha iborani *faqat bir marta uylangan* deb ham tarjima qilsa bo‘ladi. Ammo Pavlus qayta turmush qurishni man etmagan, bevalarga qayta turmush qurishni maslahat bergan (5:14 ga va Rimliklar 7:1-3, 1 Korinfliklar 7:8-9, 39-40 ga qarang). Mana shu sabablarga ko‘ra, Pavlus bu o‘rinda yetakchining o‘z xotiniga vafodor qolishini nazarda tutgan bo‘lsa kerak.

3:6 *...iblisning halokatli changaliga tushib qolmasin* — yoki *iblisga o‘xshab jazo olmasin*, ammo shu bobning 7–oyatiga va 1:20 ga qarang.

3:11-12 *...o‘z xotiniga vafodor...* — shu bobning 2–oyati izohiga qarang.

3:11-12 *Xizmatchi ayollar* — yunoncha matndagi so‘z umuman ayol kishiga, aniqrog‘i, turmushga chiqqan ayolga nisbatan ishlatiladi. Shuning uchun bu o‘rindagi iborani *xizmatchilarning xotinlari* deb ham tarjima qilsa bo‘ladi. Bu o‘rinda Pavlus jamoatdagi xizmatchi ayollarni nazarda tutgan bo‘lishi mumkin (misol uchun, Rimliklar 16:1 ga qarang).

3:16 *...bu haqiqat quyidagichadir* — mazkur oyatdagi she’riy parcha masihiylar sajda qilish paytida o‘z imonini tasdiqlab aytgan so‘zlari yoki Xudoni ulug‘lab aytgan ilk qo‘shiqlaridan biri bo‘lishi mumkin.

3:16 *Masih* — yunoncha matnda *U*. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *Xudo*.

3:16 *Yangi, ulug‘vor hayot uchun o‘likdan tirilib, Xudoning O‘g‘li deb tasdiqlandi* — yunoncha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *U ruhda tasdiqlandi*. Bu o‘rinda *ruhda* so‘zi insonning tirilgan tanadagi yangi holatiga ishora qiladi. Iso Masihning o‘likdan tirilgani Uni haqiqatan Xudoning O‘zi yuborganini va Iso Xudoning O‘g‘li ekanini tasdiqlaydi (Rimliklar 1:4 ga qarang, yana Yuhanno 2:18-22, Havoriylar 2:22-36 ga qarang).

3:16 *U zohir bo‘ldi farishtalarga* — Iso Masih tirilgandan keyin samoda ulug‘vorlik bilan zohir bo‘lishiga ishora (1 Butrus 3:22, Efesliklar 1:20-21, Filippiliklar 2:9-11, Ibroniylar 1:3-4, Vahiy 5:11-14 ga qarang).

4:7 *bema’ni afsonalar* — 1:3-7 oyatlarga va 1:4 izohiga qarang.

4:10 *...xizmat qilyapmiz* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *xizmat qilyapmiz va zahmat chekyapmiz*.

4:10 *U barcha insonlarning, ayniqsa imonlilarning Najotkoridir* — 2:3-6 ga va Yuhanno 1:12 ga qarang.

4:13 *ovoz chiqarib o‘qish* — imonlilar birga yig‘ilganda muqaddas bitiklar ovoz chiqarib o‘qilardi, chunki qadimda ko‘pchilik o‘qishni bilmas edi.

4:14 *in’om* — Muqaddas Ruh orqali berilgan maxsus qobiliyat (Rimliklar 12:6-8, 1 Korinfliklar 12:4-11 ga qarang).

5:9 *Tullar ro‘yxati* — Efesdagi imonlilar jamoatdan moddiy yordam oladigan beva ayollarning ro‘yxatini tuzgan. Mana shu ro‘yxatdagi bevalar o‘zlarini ibodatga va Xudoga xizmat qilishga bag‘ishlab, ont ichganlar (shu bobning 5, 10-12–oyatlariga qarang).

5:9 *...marhum eriga vafodor bo‘lgan...* — yunoncha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *...bir erkakning xotini bo‘lgan...*. 3:2 izohiga qarang.

5:10 *...Xudo azizlarining oyoqlarini yuvgan...* — bu iborani ikki xil ma’noda tushunsa bo‘ladi. Birinchi ma’nosi jamoat yig‘ilishlariga kelganlarning, mehmon ustoz va va’zxonlarning oyoqlarini yuvib, ularga izzat–hurmat bildiradigan bir marosim (Yuhanno 13:1-5 ga qarang). Ikkinchi ma’nosi esa umuman jamoatdagilarga samimiyat bilan, beg‘araz xizmat qilishni bildiradigan majoziy ma’noda ishlatilgan ibora.

5:16 *...birorta imonli ayolning...* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *birorta imonlining*.

5:18 Qonunlar 25:4 ga qarang.

5:18 Luqo 10:7 ga qarang.

5:21 *tanlangan farishtalar* — samodagi farishtalarga ishora. Ularning raqiblari shayton shohligining a’zosi bo‘lgan gunohkor farishtalardir. Tanlangan farishtalarni bu ro‘yxatga kiritishdan maqsad shuki, farishtalar ham qiyomat kunida Isoning huzurida bo‘ladilar (Matto 25:31, Vahiy 14:10 ga qarang).

5:23 *Lekin suv ichish bilan cheklanib qolmay, ozginadan sharob ham ichib tur* — Timo‘tiy pok bo‘lish niyatida o‘zini sharob ichishdan tiygan bo‘lishi mumkin (3:3, 8 ga qarang). Bu o‘rinda Pavlus ozgina sharob ichish sog‘lik uchun foydali ekanini aytib o‘tadi, chunki o‘sha davrlarda ichimlik suvi toza bo‘lmagan va sog‘likka zarar edi.

6:5 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida quyidagi so‘zlar oyatga qo‘shimcha qilingan: *bunday odamlardan o‘zingni chetga ol*.

6:13 *Po‘ntiy Pilat* — Rim hukumati tomonidan Yahudiya viloyatiga tayinlangan hokim. U Isoni o‘limga mahkum qilgan edi (Matto 27:11-26, Yuhanno 18:31-19:16 ga qarang).

6:20 *senga ishonib topshirilgan Xushxabar* — 2 Timo‘tiy 1:12-14, 2:2 ga qarang.

6:21 *…sizlarga yor bo‘lsin* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *…senga yor bo‘lsin. Omin.*

PAVLUSNING
TIMO‘TIYGA
IKKINCHI MAKTUBI

Kirish

Pavlusning yosh hamkori va yordamchisi Timo‘tiyga yozgan ikkinchi maktubi, asosan, nasihatlardan tashkil topgan. Pavlus bu maktubini zindonda* o‘tirgan paytda, xizmati nihoyasiga yetib qolganini bilgan holda yozgani uchun, uning his–tuyg‘ularini maktubdan yaqqol sezish mumkin. Ushbu maktubning asosiy mavzusi sabr–toqat bo‘lib, Pavlus Timo‘tiyga hech qanday qiyinchiliklardan qo‘rqmaslikka, Iso Masihga sodiq qolib, Xushxabarni targ‘ib qilishga, Muqaddas bitiklardagi haqiqat bo‘yicha yashashga, imonlilar jamoatidagi mas’uliyatini chin ko‘ngildan ado etishga undaydi.

Pavlus Timo‘tiyga, bema’ni, ahmoqona bahslardan uzoqlash, deb nasihat qiladi. Bunday bahslar tinglovchilarga faqat zarar yetkazishini ta’kidlaydi. Pavlus boshidan kechirgan qiyinchiliklarni, hayot tarzi, sabr–toqati, murod–maqsadi, imoni va sevgisini namuna tariqasida keltiradi. U hozirgi va kelajakdagi sinovlarga bardosh berish muhimligiga urg‘u beradi.

1–BOB

Duoyi salom

1-2 Xudoning irodasi bilan Iso Masihning havoriysi bo‘lgan men — Pavlusdan sevimli o‘g‘lim Timo‘tiyga* salom! Xudo abadiy hayotni e’lon qilishim uchun meni yubordi. U va’da qilgan bu hayotga Iso Masihga bo‘lgan imon orqali erishiladi. O‘g‘lim Timo‘tiy, senga Otamiz Xudo va Rabbimiz Iso Masih inoyat, marhamat va tinchlik ato qilsin.

Iso Masihga sodiq qolishga da’vat

3 Timo‘tiy, boringga shukur! Men, ota–bobolarim kabi, Xudoga vijdonan xizmat qilib, kechayu kunduz sen uchun ibodat qilaman. 4 Seni juda sog‘inganman, ko‘z yosh to‘kkanlaring hamon yodimda. Qaniydi, diydoringni ko‘rsam–u, qalbim quvonchga to‘lsa, deyman. 5 Sening samimiy imoningni doim eslayman. Avvaldan buving Loida hamda onang Evnika o‘z qalblariga jo etgan o‘sha imon endi senda ham ravnaq topayotganiga aminman.

6 Shu sababdan, yodingda bo‘lsin: men ustingga qo‘llarimni qo‘yib duo qilganimda*, sen Xudodan Muqaddas Ruhni in’om* qilib olgansan. Ichingdagi o‘sha Muqaddas Ruh in’omini alangalatib tur. 7 Zero, Xudo bergan Ruh qalbimizga qo‘rquv solmaydi, aksincha, bizga kuch, muhabbat va aqli rasolikni ato qiladi. 8 Shunday ekan, Rabbimiz Iso haqida shohidlik berishdan or qilma, men Rabbimiz tufayli zanjirband bo‘lganimdan ham uyalma. Mendan ibrat olib, Xushxabar tufayli azob chekishga tayyor turgin, buning uchun Xudoning bergan kuchiga tayangin. 9 Axir, Xudo bizga najot berdi, Xushxabar aytish kabi muqaddas xizmatga bizni da’vat etdi. Bunga bizning savob ishlarimiz emas, aksincha, Xudoning murod–maqsadiyu inoyati sabab bo‘ldi. Xudo azaldanoq Iso Masih orqali bizga inoyat ko‘rsatishga qaror qilgan edi. 10 Mana endi bu inoyat najotkorimiz Iso

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

Masihning olamga kelishi bilan yaqqol namoyon bo‘ldi. Masih o‘lim kuchini yo‘q qildi. U mangu hayotga eltuvchi yo‘lni bizga Xushxabar orqali yoritib berdi.

11 Xudo meni bu Xushxabarni turli xalqlarga yetkazuvchi voiz, havoriy va muallim
qilib tayinladi. 12 Shu sababdan ham bu azoblarni tortyapman. Biroq men bundan or
qilmayman, chunki Kimga e’tiqod qilganimni yaxshi bilaman. Ishonchim komilki, Xudo
menga topshirgan Xushxabarni qiyomat kunigacha Uning O‘zi to‘lig‘icha saqlashga
qodir*. 13 Sen mendan eshitgan bu sog‘lom ta’limotdan namuna olgin, uni asragin. Iso
Masihga tegishli bo‘lgan inson sifatida imon va muhabbatga to‘la hayot kechirgin.
14 Senga ishonib topshirilgan bu ezgu ta’limotni ichimizda yashayotgan Muqaddas Ruh
yordamida avaylab–asragin.

15 Asiya viloyatidagi barcha birodarlar, shu jumladan, Figelus bilan Hermogenes
mendan yuz o‘girganlarini bilasan. 16 Onisiforus baraka topsin, Rabbimiz Iso uning
xonadoniga marhamat qilsin. Onisiforus bir necha marta kelib, mening ko‘nglimni
ko‘tardi. Zanjirbandligimdan* or qilmay, 17 Rimga kelishi bilanoq, meni astoydil qidirib,
oxiri topdi. 18 U menga Efes shahrida ham qanchalar xizmat qilganini o‘zing yaxshi
bilasan. Yo Rabbim Iso, qiyomat kunida O‘z marhamatingni Onisiforusdan darig‘
tutmagin!

2–BOB

Masih tufayli azoblarga dosh berish haqida

1 Timo‘tiy o‘g‘lim, bardam bo‘l. Buning uchun Iso Masih orqali ko‘rsatilgan Xudoning
inoyatiga tayangin. 2 Sen ko‘p shohidlar huzurida Xushxabar haqida ta’lim berganimni
eshitgansan. Endi bu ta’limotni boshqalarga ham o‘rgatishga qobiliyati bor, ishonchli
odamlarga topshirgin. 3 Iso Masihning yaxshi bir askari kabi, men bilan birga azob
chekishga tayyor turgin. 4 Harbiy xizmatdagi askar tirikchilik ishlari bilan band
bo‘lmaydi, chunki qo‘mondonini mamnun qilishni istaydi. 5 Shuningdek, musobaqada
qatnashgan kishi qoidaga rioya qilmasa, g‘alaba tojini kiymaydi. 6 Mehnat qilgan dehqon
olgan hosilidan birinchi bo‘lib bahramand bo‘lishi lozim. 7 Aytganlarim haqida mulohaza
qil, bularni tushunib olishingga Rabbimiz Iso senga yordam beradi.

8 Dovud naslidan bo‘lgan Iso Masih o‘likdan tirilganini doimo yodingda tut! Men
targ‘ib qilayotgan Xushxabar shudir! 9 Ana shu Xushxabar uchun men azoblarga duchor
bo‘lyapman, hatto jinoyatchiday zanjirband qilindim*. Ammo Xudoning kalomini
zanjirlab bo‘lmaydi! 10 Shunday ekan, Xudoning tanlagan odamlari Iso Masih bergan
najotdan bahramand bo‘lsinlar, abadiy ulug‘vorlikka erishsinlar deb, men hamma
narsaga chidab kelyapman. 11 Quyidagi gap to‘g‘ri va asoslidir:

“Agar biz Masih bilan birga o‘lgan bo‘lsak,
U bilan birga ham yashaymiz.
12 Agar qiyinchiliklarga chidasak,
U bilan birga hukmronlik qilamiz.
Bordi–yu, Uni rad etsak,
U ham bizni rad etadi.
13 Sodiq bo‘lmasak ham,
Masih sodiq bo‘lib qolaveradi,

Axir, U O‘z tabiatiga qarshi chiqa olmaydi.”

Haqiqatga sodiq qolish haqida

14 Bu gaplarni imonlilarga eslatib tur, ularga Xudoning nomidan qat’iy buyur:
mayda–chuyda gaplar yuzasidan bahslashmasinlar. Bunday bahslar befoyda,
tinglovchilarga faqat zarar yetkazadi, xolos. 15 Xudoning oldida yorug‘ yuz bilan tura
olishing uchun astoydil mehnat qil. O‘z ishidan uyalmaydigan, haqiqat kalomini to‘g‘ri
o‘rgatadigan xizmatchi bo‘lgin. 16 Xudodan uzoqlashtiradigan quruq gaplardan qoch.
Bunday gaplarga berilgan odamlar tobora betavfiq bo‘lib boradi. 17 Ularning bu ta’limoti
o‘lat kabi yoyiladi. Mana, Xumanayos* bilan Filitus ham shunday odamlar jumlasidan.
18 Ular to‘g‘ri yo‘ldan ozganlar. Biz allaqachon o‘likdan tirildik*, deb ba’zilarni imonidan
qaytaryaptilar. 19 Ammo Xudo asos solgan poydevor mustahkam turibdi. Bu poydevor
ustiga shunday so‘zlar bitilgan: “Egamiz O‘zinikilarni biladi” va “Egamizning nomini tilga
olgan har bir odam yomonlikdan uzoqlashsin.”

20 Katta bir uyda nafaqat oltin va kumush idishlar, balki yog‘och va sopol idishlar
ham bor. Oltin va kumush idishlar xo‘jayinga sharaf keltiradi, qadrsiz idishlar esa uning
obro‘yini to‘kadi. 21 Kim o‘zini men aytgan yomonliklardan poklasa, Egasi uchun sharaf
keltiradigan idishday bo‘ladi. Bunday odam Egasiga xizmat qilishga bag‘ishlangan, har
bir yaxshi ish qilishga tayyor bo‘ladi.

22 O‘g‘lim, yoshlik ehtiroslaridan qoch. Chin yurakdan Rabbimiz Isoga iltijo qilgan
odamlar bilan birga solihlik, imon, mehr–muhabbat va tinchlik payida bo‘lgin.
23 Ahmoqona, bema’ni bahslardan uzoqlash. O‘zing bilasan–ku, bular faqat janjal keltirib
chiqaradi. 24 Rabbimiz Isoning quli esa janjalkash bo‘lmasligi kerak. Aksincha, u
hammaga mehribon, ta’lim berishga qobiliyatli, sabr–toqatli bo‘lishi lozim. 25 U o‘z
raqiblarini muloyimlik bilan yo‘lga solsin. Kim bilsin, balki Xudo ularni tavbaga olib
kelar?! Shunda ular haqiqatni bilib, 26 o‘zlariga kelarlar, iblisning tuzog‘idan qutulib
qolarlar. Axir, iblis ularni asir qilib, o‘ziga tobe qilib olgan.

3–BOB

Oxirgi kunlar haqida

1 Shuni bilginki, oxirgi kunlarda og‘ir vaqtlar keladi. 2 O‘sha paytda odamlar faqat
o‘zini o‘ylaydigan, pulparast, maqtanchoq, takabbur, so‘kinadigan, ota–onaga itoat
qilmaydigan, nonko‘r, diyonatsiz, 3 tosh yurak, ginachi, tuhmatchi, nafsini tiya
olmaydigan, vahshiy, yaxshilikdan hazar qiladigan, 4 xoin, bebosh, bosar–tusarini
bilmaydigan bo‘ladilar. Ular Xudoni emas, aysh–ishratni yaxshi ko‘radilar. 5 O‘zlarini
xudojo‘y qilib ko‘rsatadilar–u, ammo haqiqiy imondan yuz o‘giradilar. Sen bunday
odamlardan uzoqlash.

6 Ular atrofdagilarning ishonchini suiiste’mol qilib, uylariga kirib oladilar. Turli hirsu
havaslarga berilgan, gunohlaridan vijdoni qiynalib yurgan nodon ayollarning dilini
ovlaydilar. 7 Qachon qarama, bunday ayollar yangi ta’limotlar payida bo‘ladilar,
haqiqatni esa tan olmaydilar. 8 Yannis va Yambris* Musoga qanday qarshi turgan
bo‘lsalar, bu odamlar ham haqiqatga xuddi shunday qarshi turadilar. Ammo fikri buzuq,
imoni soxta bu odamlar 9 uzoqqa bormaydilar. Ular Yannis bilan Yambrisning holiga
tushadilar, ularning aqlsizligi hammaga ma’lum bo‘ladi.

Imonda sodiq qolishga da’vat

10 Sen esa, Timo‘tiy, ta’limotimga rioya qilding, turmush tarzim, murod–maqsadim,
imonim, sabr–toqatim, mehr–muhabbatim va sabotimdan namuna olding. 11 Xushxabar
tufayli chekkan azob–uqubatlarimni o‘zing bilasan. Antioxiya, Ikoniya va Listra
shaharlarida quvg‘in bo‘lganim haqida eshitgansan*. Ha, men qattiq quvg‘inlarni
boshdan kechirdim! Ammo Rabbim Iso bularning hammasiga qaramay, jonimni omon
saqladi. 12 Darhaqiqat, Iso Masih yo‘lida taqvodor hayot kechirgan har bir odam
quvg‘inga uchraydi. 13 Ammo fosiq va makkor odamlar tobora razillashib boraveradi.
Ular boshqalarni aldaydilar, o‘zlari ham aldanadilar.
14 Sen esa, o‘zing olgan va qattiq ishongan ta’limotingga sodiq qol. Chunki bu
ta’limotni senga o‘rgatgan ustozlarning ibratomuz hayotini o‘zing ko‘rgansan.
15 Bolaligingdanoq Muqaddas bitiklarni o‘rgangansan. Bu bitiklar insonga donolik ato
qiladi, Iso Masihga bo‘lgan ishonch orqali uni najotga erishtiradi. 16 Muqaddas
bitiklarning hammasi ilohiy ilhom bilan yozilgan bo‘lib, ta’lim va tanbeh berish,
xatolarni tuzatish va solihlik yo‘lida tarbiya berish uchun foydalidir. 17 Bitiklardagi
o‘gitlar bo‘yicha yashagan Xudoning quli har qanday yaxshi ish qilishga qobil bo‘lib,
tayyor turadi.

4–BOB

Timo‘tiyga qat’iy buyruq

1 Xudo huzurida hamda tirigu o‘liklarni hukm qiladigan Iso Masih huzurida, Uning
kelishi va hukmronligi haqi, senga qat’iy buyuraman: 2 Xudoning kalomini targ‘ib qil.
“Hozir buning vaqtimi, vaqti emasmi?” demay, uni astoydil e’lon qil. Odamlarga ta’lim
berib, ularni to‘g‘ri yo‘lga sol, tanbeh ber, nasihat qil. Hammasini sabr–toqat bilan bajar.
3 Chunki shunday vaqt keladiki, odamlar sog‘lom ta’limotga toqat qilmaydigan
bo‘ladilar, ular atrofiga o‘zlariga mos, quloqlariga yoqimli so‘zlar aytadigan muallimlar
to‘playdilar. 4 Ular haqiqatdan yuz o‘girib, afsonalarga berilib ketadilar. 5 Ammo sen har
qanday sharoitda aql bilan ish tut, azoblarga chida, Xushxabarni targ‘ib qil, o‘z
xizmatingni to‘liq bajargin.
6 Men hademay bu dunyodan o‘tib ketaman*, jonim Xudoga qurbon*. 7 Men ulug‘
kurashda jang qildim, zimmamdagi vazifani oxiriga yetkazdim, Xushxabarga sodiq
qoldim. 8 Meni solihlik toji kutmoqda. Odil Hakam — Rabbimiz Iso kelgan kunda o‘sha
tojni menga O‘zi beradi. Bunday toj faqat menga emas, balki Uning kelishini intizorlik
bilan kutayotganlarning hammasiga nasib bo‘ladi.

Pavlusning Timo‘tiyga so‘nggi ko‘rsatmalari

9 Mening oldimga tezroq kelishga harakat qil. 10 Chunki Dimas bu dunyoga ko‘ngil
bog‘lab, meni tark etdi. U Salonika shahriga ketdi. Kriskes Galatiya viloyatiga, Titus*
Dalmatiya viloyatiga* ketdi. Yonimda faqat Luqo* bor. 11 Markni* o‘zing bilan birga olib
kel, u xizmatimda menga yordam beradi. 12 Men Tixikusni Efes shahriga yubordim.
13 Kelayotganingda o‘zing bilan to‘nimni olib kel, men uni Troas shahridagi
Karpusnikida qoldirganman. Qo‘lyozmalarni* ham, ayniqsa, charmga yozilganlarini olib
kel.
14 Temirchi Iskandar menga ko‘p yomonlik qildi. Rabbimiz Iso uni qilmishiga
yarasha jazolaydi. 15 Sen Iskandardan ehtiyot bo‘l, chunki u bizning ta’limotimizga qattiq

qarshilik ko‘rsatdi.

16 Meni birinchi marta mahkamaga olib borishganda, hech kim meni yoqlamadi.
Hamma meni tashlab ketdi. Xudo bu aybni ularning bo‘yniga qo‘ymasin! 17 Ammo
Rabbim Iso yonimda turdi, Xushxabarni to‘lig‘icha barcha xalqlarga yetkazishim uchun
Uning O‘zi menga kuch berdi. U meni o‘lim changalidan* qutqardi. 18 Rabbim meni
bundan keyin ham har qanday yomonlikdan xalos qiladi va O‘zining samoviy Shohligiga
sog‘–salomat yetkazadi. Unga abadulabad shon–sharaflar bo‘lsin! Omin.

So‘nggi salomlar

19 Priskilla bilan Akilga* va Onisiforusning xonadoniga salom aytib qo‘y. 20 Erastus
Korinf shahrida qoldi. Trofimus esa kasal bo‘lgani uchun, uni Mileytus shahrida
qoldirdim. 21 Qish boshlanmasdan oldin* kelishga harakat qil. Ebulus, Pudes, Linus,
Klavdiya va bu yerdagi hamma imonlilar senga salom yo‘llayaptilar.

22 Rabbimiz Iso senga hamroh bo‘lsin. Uning inoyati hammangizga yor bo‘lsin*.

IZOHLAR

zindonda — Rim shahrida. 1:16-17 oyatlarga va 1:16 izohiga qarang.

1:1-2 *sevimli o‘g‘lim Timo‘tiy* — 1 Timo‘tiy 1:2 izohiga qarang.

1:6 *...men ustingga qo‘llarimni qo‘yib duo qilganimda...* — bu harakat jamoat oqsoqollari bilan birga amalga oshirilgan bo‘lishi mumkin (1 Timo‘tiy 4:14 ga qarang).

1:6 *in’om* — 1 Timo‘tiy 4:14 izohiga qarang.

1:12 *...Xudo menga topshirgan Xushxabarni...saqlashga qodir* — Pavlusning umri oxirlab qolgan edi (4:6-8 ga qarang). Endi u o‘zining ta’lim berish va voizlik xizmatini Timo‘tiyga topshirayotgan edi. Shu jarayonda Pavlus Timo‘tiyga dalda beradi. Timo‘tiy Xushxabar haqiqatini buzmay, va’z qilishi uchun Xudoning O‘zi unga yordam beradi. Shu bobning 13-14–oyatlariga, 2:1-2, 8 ga va 1 Timo‘tiy 6:20-21 ga qarang.

1:16 *Zanjirbandligim* — mana shu paytda Pavlus Rimda qamoqda bo‘lgan. Bu vaziyat Havoriylar 28:16, 30 da aytib o‘tilgan qamalishdan qiyinroq kechganga o‘xshaydi. Pavlus umri oxirlab qolganini sezgan edi (shu bobning 17–oyatiga va 2:9, 4:6-17 ga qarang). Ko‘p olimlarning taxmini bo‘yicha, Pavlus birinchi marta Rimda qamalib, keyin ozod qilingan. Birmuncha vaqt safarda bo‘lgandan keyin esa yana Rimda qamoqqa tushgan. An’anaga ko‘ra, imperator Neron hukmronligi davrida Pavlus Rimda qatl qilingan.

2:9 *jinoyatchiday zanjirband qilindim* — 1:16 izohiga qarang.

2:17 *Xumanayos* — 1 Timo‘tiy 1:19-20 ga qarang.

2:18 *Biz allaqachon o‘likdan tirildik...* — inson Iso Masihga imon keltirganda ruhan qayta tiriladi (Rimliklar 6:1-11, Efesliklar 2:6, Kolosaliklar 2:13, 3:1-4 ga qarang). Ba’zilar o‘likdan tirilish faqatgina ruhiy tirilishdan iborat, deb ta’lim berayotgan ekan. Yunonlar tanani yovuzlik manbai deb bilganlar, shuning uchun mana shu odamlar, bir kun kelib jismoniy tana ham tiriladi, degan ta’limotni rad etgan bo‘lishlari mumkin (Havoriylar 17:32 ga qarang). Bu ta’limot Xushxabardagi najot haqidagi ta’limotga tamomila ziddir (1 Korinfliklar 15:12-25 ga qarang).

3:8 *Yannis va Yambris* — yahudiylar Musoga qarshi turgan fir’avn sehrgarlarini shu ismlar bilan atashar edi (Chiqish 7:10-12, 20-22, 8:16-19, 9:10-11 ga qarang).

3:11 *Antioxiya, Ikoniya va Listra shaharlarida quvg‘in bo‘lganim haqida eshitgansan* — misol uchun, Havoriylar 14:1-7, 19-20 ga qarang. Timo‘tiy Listradan edi.

4:6 *Men hademay bu dunyodan o‘tib ketaman...* — 1:16 izohiga qarang.

4:6 *...jonim Xudoga qurbon* — yunoncha matnda *...sharob nazriday to‘kilmoqdaman*. Filippiliklar 2:17 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang

4:10 *Titus* — Pavlusning hamkori va yordamchisi (2 Korinfliklar 8:23, Titus 1:4-5 ga qarang).

4:10 *Dalmatiya viloyati* — Rimdan shimoli–sharqda, hozirgi Adriatika dengizining sharqiy qirg‘og‘ida joylashgan.

4:10 *Luqo* — Kolosaliklar 4:14 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

4:11 *Mark* — Kolosaliklar 4:10 ga va oʻsha oyatning oxirgi izohiga qarang.

4:13 *Qoʻlyozma* — papirus yoki oshlangan teridan qilingan uzun oʻrama qogʻoz. Qadimgi paytlarda kitoblar odatda oʻrama qogʻoz shaklida boʻlgan.

4:17 *…oʻlim changalidan…* — yunoncha matnda *…arslon ogʻzidan…*, majoziy usulda oʻlimga ishora. Oʻsha davrda oʻlim jazosiga mahkum qilingan jinoyatchilarni tiriklayin yirtqich hayvonlarning oldiga tashlashardi. Lekin Pavlus Rim fuqarosi boʻlgani uchun, uni bu yoʻl bilan qatl qilib boʻlmas edi.

4:19 *Priskilla bilan Akil* — Havoriylar 18:2-3, 18-21, 24-26 ga qarang.

4:21 *Qish boshlanmasdan oldin…* — Efesdan Rimga dengiz orqali borilardi. Odatda noyabr oyining oʻrtalaridan boshlab to mart oyining oʻrtalarigacha dengiz orqali safar qilishning iloji yoʻq edi. Timoʻtiy bu paytda Efesda boʻlgani uchun Pavlus unga, qishdan oldin yoʻlga tushgin, deb aytgan.

4:22 Yunoncha matndan. Baʼzi yunon qoʻlyozmalarida quyidagi soʻz oyatga qoʻshimcha qilingan: *omin*.

PAVLUSNING
TITUSGA
MAKTUBI

Kirish

Mazkur maktub muallifi havoriy Pavlusdir. Pavlus bu maktubini Krit orolidagi yosh, sadoqatli hamkori Titusga yozgan. Titus, Timo‘tiy singari, Pavlusning eng yaqin hamkorlaridan biri edi. Galatiyaliklarga yozgan maktubida Pavlus Titusning yunon ekanligini aytib o‘tadi*.

Titus Pavlus bilan birgalikda Krit orolida Masih haqidagi Xushxabarni e’lon qilib, dastlabki imonlilar jamoatlariga asos solgan edi. Pavlus Kritdan ketishidan oldin, jamoatlarda tartib–qoida o‘rnatish vazifasini Titusning zimmasiga yuklagan edi.

Maktubning boshida muallif jamoat yetakchilari haqida so‘z yuritadi. Ular Kritdagi badfe’l odamlardan ajralib turishi, ibratli va bir qator xislatlarga ega bo‘lishlari kerakligi haqida yozadi. Pavlus Titusni soxta ustozlardan uzoqroq yurish haqida ogohlantiradi. Maktubning davomida esa, jamoatdagi yoshu qarilarga, qullarga qay tarzda ta’lim berish kerakligi haqida nasihat qiladi. So‘ng masihiylarning fe’l–atvori qanday bo‘lishi kerakligiga e’tiborini qaratib, jamoatdagilarga muloyim va mehribon bo‘linglar, xayrli ishlarga bel bog‘langlar, deb yozadi.

Pavlus bu maktubida Xudoning inoyatiga urg‘u beradi. Xudo O‘z inoyati tufayli bizga Iso Masih orqali yangi hayot ato qilganini, ustimizga O‘z Ruhidan mo‘l qilib yog‘dirganini eslatib, endi abadiy hayotga umid bog‘lab yashashimiz kerakligini ta’kidlaydi.

1–BOB

Duoyi salom

1 Xudoning quli va Iso Masihning havoriysi bo‘lgan men — Pavlusdan salom!
Xudoning tanlangan odamlari imonda sobit bo‘lsinlar va xudojo‘ylikka chorlovchi
haqiqatni bilib olsinlar deb, Xudo meni bu xizmatga tayinladi. 2 Havoriy sifatida men
ularni abadiy hayotdan umidvor bo‘lishga da’vat etaman. Zero, Xudo abadiy hayotni
azaldanoq va’da qilgan. U hech qachon yolg‘on va’dalar bermaydi. 3 Belgilangan paytda
Xudo abadiy hayotga chorlovchi Xushxabarni bizning voizligimiz orqali ayon etdi.
Najotkorimiz Xudo bu Xushxabarni menga topshirib, uni e’lon qilishimni buyurdi.
4 Qadrdonim Titus*, bizning e’tiqodimiz bir, sen menga o‘z o‘g‘limday bo‘lib qolgansan.
Otamiz Xudo va najotkorimiz Iso Masih senga inoyat va tinchlik ato qilsin.

Titusning Krit orolidagi vazifalari

5 Qolgan ishlarni bitirishing uchun men seni Krit orolida qoldirgan edim. Senga
buyurganimdek, orolning har bir shahridagi imonlilar jamoati ustidan oqsoqollar
tayinlagin. 6 Jamoat oqsoqoli yaxshi nom chiqargan bo‘lishi shart. U o‘z xotiniga vafodor*
bo‘lsin. Uning farzandlari imonli bo‘lib, shaloqlik va itoatsizlik aybidan xoli bo‘lishsin.
7 Zero, jamoat yetakchisi Xudoning xonadonini boshqaruvchi sifatida kamchiliksiz
bo‘lishi lozim, ya’ni u takabbur, jahldor, mayxo‘r, zo‘ravon yoki pulparast emas, 8 balki

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

mehmondo‘st, yaxshilikni sevadigan, vazmin, odil, oq ko‘ngil va nafsini tiygan odam bo‘lsin. 9 Haqiqatga o‘rgatilgan, Xushxabar aqidalariga qat’iy rioya qiladigan inson bo‘lsin. Shunda u boshqalarga ham sog‘lom ta’limot bilan nasihat qila oladi, qarshilik qiluvchilarni esa fosh eta oladi.

10 Axir, hech kimga itoat qilmaydigan, quruq gap sotadigan yolg‘onchi birodarlar bor, ayniqsa sunnatlilar* orasida bundaylar ko‘p. 11 Ularning safsatalarini to‘xtatish kerak. Zero, ular pul ishlash niyatida soxta ta’limotlar o‘rgatib, butun oilalarni to‘g‘ri yo‘ldan ozdirmoqdalar. 12 Mana, ulardan chiqqan bir mutafakkir o‘z yurtdoshlari haqida shunday degan:

> “Kritliklar doimo yolg‘on gapirishadi,
> Ular yebto‘ymas dangasalardir,
> Go‘yoki yirtqich hayvonlardir.”

13 Bu gapda jon bor. Shuning uchun beboshlarga qattiq tanbeh ber, toki ular haq imonga qaytsinlar. 14 Yahudiylarning afsonalariga va haqiqatdan yuz o‘girgan odamlarning ko‘rsatmalariga quloq solmasinlar. 15 Qalbi pok odamlar uchun hamma narsa haloldir. Buzuq va imonsizlarning nazarida esa hamma narsa haromdir. Bundaylarning aqli ham, vijdoni ham bulg‘angan. 16 Ular, Xudoni bilamiz, deydilar–u, o‘z qilmishlari bilan Uni inkor etadilar. Bunday qabih, o‘zboshimcha odamlar hech bir xayrli ishga yaramaydilar.

2–BOB

Jamoatdagi yoshu qarilarga va qullarga nasihatlar

1 Titus, sen sog‘lom ta’limot asosida nasihat qil. 2 Yoshi katta erkaklarga ayt: ular mayxo‘rlikka berilmagan, hurmatga sazovor, vazmin, imonda mustahkam, mehribon va sabr–toqatli bo‘lsinlar.

3 Yoshi katta ayollarga ham tayinla, ular sharafli hayot kechirsinlar. G‘iybat qilmasinlar, mayxo‘rlikka ruju qo‘ymasinlar. Har qanday xayrli ishda ibrat ko‘rsatib, 4 kelinlarga pand–nasihat qilsinlar, ularga o‘z erlari va farzandlarini sevishni, 5 vazmin, iffatli, ro‘zg‘orga jonkuyar, mehribon, erlariga bo‘ysunadigan bo‘lishni o‘rgatsinlar. Shunda hech kim Xudoning kalomini yomonlamaydi.

6 Yigitlarni ham bosiq bo‘lishga undagin. 7 Har bir ishda yurish–turishing bilan o‘zing ularga o‘rnak bo‘lgin. Ta’lim berganingda samimiy va jiddiy bo‘l. 8 To‘g‘ri ta’lim bergin, shunda tanqidning oldini olgan bo‘lasan va raqiblarimiz biz haqimizda yomon so‘z aytolmay, uyatga qoladilar.

9 Qullarga o‘rgat, ular doim o‘z xo‘jayinlariga itoat etib, ularni mamnun qilsinlar. Gap qaytarmasinlar, 10 o‘g‘rilik qilmasinlar, har qanday vaziyatda to‘g‘ri yo‘l tutib, ishonchga sazovor bo‘lsinlar. Shunda qullar xulq–atvori bilan najotkorimiz Xudo haqidagi ta’limotning tengi yo‘q go‘zalligini namoyon etadilar.

11 Zero, Xudo butun insoniyatga najot yo‘lini ochib berib, O‘z inoyatini ko‘rsatdi. 12-13 Bu inoyat orqali Xudo bizga shuni o‘rgatadiki, biz xudosiz hayotdan va dunyoviy orzu–ehtiroslardan voz kechishimiz kerak. Axir, bizning ajoyib umidimiz bor: biz najotkorimiz Iso Masihning kelishiga va buyuk Xudoning ulug‘vorligini ko‘rishga umid bog‘laganmiz. Masihning kelishini kutar ekanmiz, bu o‘tkinchi hayotimizda nafsni

tiyishimiz, to‘g‘ri va taqvodor hayot kechirishimiz lozim. 14 Axir, Iso Masih bizni barcha
illatlarimizdan xalos qilish uchun O‘z jonini fido qildi. U bizni poklab, O‘ziga tegishli
bo‘lgan, yaxshilik qilishga bag‘ishlangan aziz bir xalq qildi.
15 Aytganlarimning hammasini sen jamoatdagilarga o‘rgat. Xudo bergan hokimiyat
bilan ularga nasihat qil, tanbeh ber. Seni birontasi kamsitishiga yo‘l qo‘yma.

3–BOB

Xayrli ishlarga bel bog‘lang

1 Sen jamoatdagilarga eslatib tur: ular davlat boshliqlariyu hokimlarga bo‘ysunsinlar,
itoat etib, har qanday xayrli ishga tayyor bo‘lsinlar. 2 Hech kimni yomonlamasinlar,
janjallashmasinlar, boshqalarga nisbatan doim muloyim va mehribon bo‘lsinlar.
3 Bir vaqtlar bizlar ham fahmsiz, itoatsiz, adashgan odamlar edik, har xil zavqu
ehtiroslarning quli bo‘lib, gina–kudurat va hasadgo‘ylik bilan kun kechirardik, bir–
birimizdan nafratlanadigan razil odamlar edik. 4 Ammo najotkorimiz Xudo bizga bo‘lgan
ezguligi va mehr–muhabbatini ko‘rsatdi. 5 Savob ishlarimiz tufayli emas, balki O‘zining
rahm–shafqati tufayli U bizni qutqardi. Muqaddas Ruh orqali gunohlarimizni yuvdi,
bizni yangidan tug‘dirib, yangi hayot ato etdi. 6 Najotkorimiz Iso Masih orqali Xudo
bizning ustimizga Muqaddas Ruhini mo‘l–ko‘l qilib yog‘dirdi. 7 Biz Isoning inoyati bilan
oqlandik, endi abadiy hayotga umid bog‘lab, Xudo va’da qilgan barakalardan bahramand
bo‘la olamiz. 8 Bu gaplarning hammasi to‘g‘ri va asoslidir.
Ushbu ta’limotning foydasi katta. Jamoatdagilarga yaxshilab uqtir, ular
o‘rgatganlarimning hammasiga rioya qilsinlar. Xudoga ishonganlar xayrli ishlarga
astoydil bel bog‘lasinlar.
9 Sen esa ahmoqona bahslardan, shajaralar* hamda Tavrot qonunlari borasidagi
munozarayu janjallardan o‘zingni olib qoch*. Bular foydasiz va behudadir. 10 Orangizga
nizo urug‘ini sepayotgan odamni bir–ikki marta ogohlantir, agar gapingga kirmasa, u
bilan aloqani uz. 11 O‘zing bilasan–ku, bunday odamning fikri buzuq. Uning qilayotgan
gunohlari o‘zini mahkum etadi.

So‘nggi ko‘rsatmalar va salomlar

12 Artemas yoki Tixikusni sening yoningga yuborganimdan keyin, Nikopolis
shahriga*, mening oldimga tezroq kelishga harakat qil. Chunki men qishni shu yerda
o‘tkazishga qaror qildim. 13 Qo‘lingizdan kelgancha qonunshunos Zinas va Apollosga*
yordam qilinglar, safarga chiqishlari uchun kerakli hamma narsani ularga bekamu ko‘st
qilib yetkazib beringlar. 14 Toki jamoatdagilar ham xayrli ishlarga astoydil bel bog‘lashga
odatlansinlar, boshqalarning zaruriy ehtiyojlarini qondirsinlar, shunda hayotlari
samarasiz bo‘lmaydi.
15 Yonimdagilarning hammasi senga salom yo‘llayaptilar. Bizni yaxshi ko‘radigan
imondagi birodarlarimizga salom aytgin.
Xudoning inoyati hammangizga yor bo‘lsin*.

IZOHLAR

…Pavlus Titusning yunon ekanligini aytib o‘tadi — Galatiyaliklar 2:3 ga qarang.

1:4 *Titus* — Pavlusning hamkori va yordamchisi (2 Korinfliklar 8:23, Galatiyaliklar 2:1 ga qarang).

1:6 *…o‘z xotiniga vafodor…* — yunoncha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *…bir ayolning eri…*. 1 Timo‘tiy 3:2 izohiga qarang.

1:10 *sunnatlilar* — Pavlus bu o‘rinda Xudoga manzur bo‘lish uchun sunnat qilinish kerak, deb o‘ylagan odamlarga ishora qiladi. Pavlusning o‘zi sunnatga qarshi bo‘lmagan, ammo najot topish uchun sunnat qilinish kerak, degan ta’limotga qat’iyan qarshi edi (Havoriylar 15:1-2 ga qarang).

3:9 *shajaralar* — 1 Timo‘tiy 1:4 izohiga qarang.

3:9 *…ahmoqona bahslardan…o‘zingni olib qoch* — 1 Timo‘tiy 1:3-7, 4:7 ga qarang.

3:12 *Nikopolis shahri* — Rim imperiyasiga qarashli Axaya viloyatining g‘arbida, O‘rta yer dengizi bo‘yida joylashgan.

3:13 *Apollos* — Havoriylar 18:24-19:1, 1 Korinfliklar 3:1-9 ga qarang.

3:15 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida quyidagi so‘z oyatga qo‘shimcha qilingan: *omin*.

PAVLUSNING
FILIMO‘NGA
MAKTUBI

Kirish

Mazkur maktub muallifi havoriy Pavlusdir. Pavlus ushbu maktubini Filimo‘n ismli masihiyga yo‘llaydi. Ehtimol, Filimo‘n Kolosa shahridagi jamoatning a’zosi bo‘lgandir. Filimo‘nning O‘nisimus degan quli bor edi. Bu qul xo‘jayinidan qochib ketib, taqdir taqozosi bilan Pavlusni uchratib qoladi. Pavlus o‘sha vaqtda qamoqda* bo‘ladi. O‘nisimus Pavlus orqali imonga keladi.

Pavlus bu maktubni Filimo‘nga quli O‘nisimus bilan yarashishni iltimos qilib yozadi. So‘ng O‘nisimusga maktubni berib, uni Filimo‘nning oldiga qaytarib yuboradi. Pavlus Filimo‘ndan O‘nisimusni nafaqat qul, balki masihiy birodar sifatida qabul qilishini so‘raydi.

Filimo‘nga maktub juda qisqa bo‘lgani uchun boblarga bo‘linmagan.

1–BOB

Duoyi salom

1 Iso Masihga qilgan xizmatim tufayli qamoqda bo‘lgan* men — Pavlusdan hamda
birodarimiz Timo‘tiydan* sevikli hamkorimiz Filimo‘nga salom! 2 Singlimiz* Affiya bilan
safdoshimiz Arxippusga, shuningdek, xonadoningda yig‘ilib turadigan imonlilar
jamoatiga ham salom yo‘llaymiz. 3 Otamiz Xudo va Rabbimiz Iso Masih sizlarga inoyat va
tinchlik ato qilsin.

Xudoga shukrona

4 Ey Filimo‘n, men ibodat qilganimda seni eslab, har doim Xudoyimga shukur
aytaman. 5 Chunki sening Rabbimiz Isoga bo‘lgan imoning va barcha aziz birodarlarga
bo‘lgan muhabbating haqida eshitib turibman. 6 Ibodatim shuki, birgalikda baham
ko‘rayotgan imonimiz sening hayotingda samara bersin. Iso Masih uchun qilishimiz
kerak bo‘lgan yaxshiliklarni chuqurroq tushunishingga olib kelsin. 7 Birodarim, sen
tufayli birodarlarning ko‘ngli tinch. Sening mehr–muhabbating menga katta sevinch va
tasalli berdi.

Pavlus qul O‘nisimus uchun iltimos qiladi

8 Filimo‘n, sen ham, men ham Masihga ishonamiz. Shuning uchun men senga, o‘z
burchingni bajargin, deb buyurishga haddim sig‘adi. 9 Ammo sen meni yaxshi ko‘rganing
uchun iltimos qilishni afzal ko‘rdim. Iso Masih tufayli qamoqda bo‘lgan, yoshi o‘tib
qolgan men, Pavlus, 10 mahbusligimda imon orqali menga o‘g‘il bo‘lib qolgan O‘nisimus*
uchun sendan iltimos qilyapman. 11-12 O‘nisimus bir vaqtlar senga foydasiz edi. Endi esa
u senga ham, menga ham foydalidir*. Ko‘zimning oqu qorasiday bo‘lib qolgan
O‘nisimusni sening oldingga qaytarib yubordim.

13 Men Xushxabarni targ‘ib qilganim uchun qamoqda yotibman. O‘nisimusning
yonimda qolishini, sening o‘rningga menga xizmat qilishini xohlar edim. 14 Ammo sening

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

roziligingsiz hech bir ish qilishni xohlamadim, chunki sening iltifotingni majburiy emas, balki ixtiyoriy bo‘lishini istadim. 15 Balki, sen O‘nisimusni abadiy qaytarib olishing uchun u sendan vaqtinchalik ajralgandir*. 16 Endi u senga faqatgina qul emas, balki quldan yuqori, sevikli birodaringdir. Men uni juda qadrlayman. Ishonchim komilki, u senga qul sifatida ham, Rabbimiz Iso orqali birodaring sifatida ham yanada qadrliroqdir.

17 Agar sen meni Rabbimiz xizmatidagi safdoshing deb bilsang, O‘nisimusni meni qabul qilganday qabul qilgin. 18 Mabodo, u senga zarar keltirgan bo‘lsa yoki sendan qarzdor bo‘lsa, buni mening zimmamga yukla. 19 Men, Pavlus, quyidagini o‘z qo‘lim bilan yozyapman*: men qarzingni to‘layman. Sen o‘z hayoting uchun* mendan qarzdor ekanligingni aytishimning esa hojati yo‘q. 20 Ha, birodarim, Rabbimiz Iso tufayli mendan bu iltifotingni ayama! Masih haqi–hurmati jonimga oro kirgin! 21 Sen mening so‘zlarimga quloq solib, aytganlarimni qilasan, ha, bundan ham ko‘prog‘ini bajarasan, deb ishonganim uchun bularni yozdim.

22 Bundan tashqari, menga biror turar joy ham tayyorlab qo‘ygin. Chunki Xudo ibodatlaringizni eshitib, meni yana sizlarning oldingizga qaytarishiga ishonaman.

So‘nggi salomlar

23-24 Men bilan birga Iso Masih nomi uchun mahbus bo‘lgan Epafras, hamkorlarim Mark*, Aristarxus, Dimas, Luqo* senga salom yo‘llayaptilar.

25 Rabbimiz Iso Masihning inoyati sizlarga yor bo‘lsin*.

IZOHLAR

qamoqda — 1–oyatning birinchi izohiga qarang.
1:1 *qamoqda bo‘lgan* — bu paytda Pavlus Rimda mahbus bo‘lgani ehtimoldan holi emas (Havoriylar 28:16, 30 ga qarang).
1:1 *Timo‘tiy* — ilk jamoatning yetakchisi bo‘lib, havoriy Pavlusning hamkori (Havoriylar 16:1-3, Filippiliklar 2:20-22 ga qarang).
1:2 *Singlimiz* — ularning tug‘ishgan singlisi emas, balki imonli ayollarga shunday murojaat qilingan.
1:10 *O‘nisimus* — Pavlus Rimda mahbus bo‘lganda O‘nisimus u orqali imonga kelgan va shu sababdan Pavlusga juda yaqin bo‘lib qolgan edi. Kolosaliklar 4:9 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.
1:11-12 *foydasiz…foydali* — O‘nisimus ismining ma’nosi *foydali* bo‘lib, bu oyatlarda so‘z o‘yini ishlatilgan.
1:15 *Balki, sen O‘nisimusni abadiy qaytarib olishing uchun u sendan vaqtinchalik ajralgandir* — O‘nisimus Filimo‘nning uyidan qochib ketganda hali masihiy emas edi. U Rimda imonga kelib, Filimo‘nning oldiga masihiy birodar sifatida qaytib ketayotgan edi. Endi ular imonli birodarlar bo‘lib, Masihda abadiy hayotga ega edilar va ularning o‘zaro munosabati butunlay o‘zgargan edi.
1:19 *…o‘z qo‘lim bilan yozyapman* — 1 Korinfliklar 16:21 izohiga qarang.
1:19 *…o‘z hayoting uchun…* — Filimo‘n Pavlus orqali Iso Masihga imon keltirgan bo‘lishi mumkin.
1:23-24 *Mark* — Kolosaliklar 4:10 ning oxirgi izohiga qarang.
1:23-24 *Luqo* — Kolosaliklar 4:14 izohiga qarang.
1:25 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida quyidagi so‘z oyatga qo‘shimcha qilingan: *omin*.

IBRONIYLARGA

MAKTUB

Kirish

Mazkur maktub muallifi o‘zi haqida hech qanday ma’lumot qoldirmagan. Ammo maktubning mazmunidan muallif — Tavrot qonunlarini mukammal biladigan, masihiylarning orasida obro‘–e’tibor qozongan yahudiy ekanini ko‘rishimiz mumkin. Mazkur maktub xat uslubida emas, ko‘proq nutq uslubida yozilgan bo‘lib, ko‘ngilni ko‘taruvchi dalda so‘zlarga, tanbeh va nasihatlarga boydir.

Muallif ushbu maktubini Iso Masihga imon keltirgan yahudiylarga yo‘llagan. Masihga imon keltirgan yahudiylar o‘sha davrda ko‘p qarshiliklarga duch kelib, yahudiy diniga qaytmoqchi bo‘lganlar. Muallif esa ularga dalda berib, Iso Masihga bo‘lgan imonni mahkam tutishga va oxirigacha Unga sodiq qolishga undaydi.

Maktubda Iso Masihning ulug‘vorligiga alohida urg‘u beriladi. U farishtalardan ham, qadimgi payg‘ambarlardan ham, eski ahd qonunlarini joriy qilgan Musodan ham, ruhoniylardan ham ulug‘ va har jihatdan yuksak ekanligi ko‘rsatiladi. Iso Masih Xudo tomonidan tanlangan abadiy Oliy ruhoniydir. Shu sababdan muallif kitobxonlarning butun e’tiborini Oliy ruhoniy Iso Masihga qaratadi. Zero, U insonlarni gunohdan xalos etish uchun xochda o‘ldi, so‘ng tirilib, osmonga ko‘tarildi. U insonlar uchun Xudoning huzuriga yo‘l ochib berdi, yangi ahdning vositachisi bo‘ldi. Modomiki, eski ahd davrida aytilgan barcha bashoratlar va Xudoning va’dalari bu yangi ahdda amalga oshgan ekan, Iso Masih bizni cheksiz qut–barakalardan bahramand qildi.

Masihning ezguligini tatib ko‘rgan bo‘lsa ham, imondan qaytgan va shu orqali Masihni oyoq osti qilgan odamlarni muallif qat’iy ogohlantiradi. Saboq tariqasida u o‘tmishdagi itoatsiz odamlarning qismatini misol qilib keltiradi, ular Xudodan qanday jazo olganini kitobxonga eslatib o‘tadi. Bundan tashqari, o‘tmishdagi imon qahramonlarining hayotini namuna tariqasida keltiradi. Ularni Xudoga bo‘lgan sadoqati uchun olqishlaydi. Shu orqali muallif imonlilarni Masihga sodiq qolishga va barcha sinovlarga bardosh berishga undaydi. Maktub davomida kundalik hayotga oid amaliy ko‘rsatmalar ham beriladi.

1–BOB

Xudo O‘z O‘g‘li orqali oxirgi so‘zini ayon qildi

[1] Xudo qadimda ota–bobolarimizga* ko‘p marta va turli tarzda payg‘ambarlar orqali
gapirgan edi. [2] Bu oxirgi kunlarda* esa U bizga O‘z O‘g‘li orqali gapirdi. Xudo koinotni
O‘g‘li orqali yaratgan va Uni butun borliqning vorisi qilib tayin etgan. [3] O‘g‘il — Xudo
shuhratining porlashi, Xudo borlig‘ining aniq suratidir. U O‘zining qudratli kalomi bilan
koinotni asrab turibdi. U O‘z jonini fido qilib, bizni gunohlardan pokladi, so‘ng samoda
Ulug‘vor Xudoning o‘ng tomonida o‘tirdi*.

Xudoning O‘g‘li — farishtalardan oliy

[4] Darhaqiqat, Xudo Masihga “O‘g‘il” deb ulug‘ nom berdi. Bu nom Masih

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

farishtalardan nihoyatda yuksak martabaga ega ekanligini koʻrsatib turibdi. 5 Axir, Xudo
bironta farishtaga:

“Sen Mening Oʻgʻlimsan,
Bugun Men Senga Ota boʻldim”*,

— deb aytmagan! Yoki:

“Men Unga Ota boʻlaman,
U esa Menga Oʻgʻil boʻladi”*,

— demagan! 6 Toʻngʻich Oʻgʻlini* bu dunyoga* yana yuborishidan oldin esa Xudo
shunday deb aytadi*:

“Hamma farishtalarim Unga sajda qilsinlar.”

7 Farishtalar haqida esa Xudo:

“Men Oʻz malaklarimni shamollarga aylantiraman,
Xizmatkorlarimni lovullagan olov qilaman”*,

— degandi. 8 Ammo Oʻz Oʻgʻliga U shunday degan:

“Sen Xudosan, Sening taxting abadiydir,
Adolat hassasi shohliging hassasidir.
9 Sen solihlikni sevasan, qabihlikdan nafratlanasan.
Shu bois Men Seni doʻstlaringdan ustun qildim,
Ha, Men, Xudoying, shodlik moyini Senga surtdim.”*

10 Oʻgʻliga yana shunday degan:

“Sen Rabbiysan,
Azalda zaminning poydevorini Sen qoʻygansan,
Samolarni Oʻz qoʻllaring ila yaratgansan.
11 Ular yoʻq boʻlib ketar, Sen turaverasan,
Yeru osmon kiyim kabi eskirib ketadi.
12 Keraksiz libosday ularni taxlab qoʻyasan,
Toʻzib ketgan kiyimday ularni almashtirasan.
Sen esa hech oʻzgarmassan,
Sen to abad yashaysan.”*

13 Xudo bironta farishtaga:

“Dushmanlaringni oyoqlaring ostiga poyandoz qilmagunimcha,
Sen Mening oʻng tomonimda oʻtirgin”*,

— deb aytmagan. 14 Axir, farishtalar bor–yoʻgʻi xizmatchi ruhlardir! Xudo ularni abadiy
hayotdan bahramand boʻladigan odamlarga xizmat qilish uchun yuborgan.

2–BOB

Buyuk najotga e’tiborsiz bo‘lmaylik

1 Shu sababdan biz butun e’tiborimizni eshitganlarimizga qaratishimiz kerak.
Shunda haqiqatdan og‘ib ketmaymiz. 2 Farishtalar orqali ota–bobolarimizga* berilgan
Xudoning qonuni* majburiy edi. Agar o‘sha qonunni buzgan va unga itoat etmagan
odamlar har bir qilmishiga yarasha jazolangan bo‘lsa, 3 nahotki biz buyuk najot xabariga
e’tiborsiz qolsak, jazodan qochib qutula olamiz?! Axir, dastlab bu najot xabarini bizga
Rabbimiz Isoning O‘zi e’lon qildi–ku. Rabbimizga quloq solgan shohidlar bu xabarning
haqiqiyligini bizga tasdiqlashdi. 4 Xudo ham bu xabarni tasdiqladi: U alomatu mo‘jizalar
va turli ajoyibotlar ko‘rsatdi, O‘z xohish–irodasi bo‘yicha, Muqaddas Ruhning
in’omlarini ulashib berdi.

Bizga najot berish uchun Iso inson bo‘lib keldi

5 Biz aytayotgan kelajak dunyoni Xudo farishtalarga tobe qilmadi. 6 Aksincha,
Muqaddas bitiklarda Xudoga shunday deb aytilgan:

> “Inson zoti nedirki, u haqda o‘ylagaysan?!
> Inson o‘g‘li* nedirki, Sen uni ardoqlagaysan?!
> 7 Sen uni qisqa vaqtgagina farishtalardan past qilding,
> Keyin esa izzatu sharaf tojini unga kiygizding*.
> 8 Bor narsani uning oyog‘i ostiga qo‘yding.”*

“Bor narsani uning oyog‘i ostiga qo‘yding” degani — Xudo butun borliqni o‘sha
Insonning hokimiyatiga tobe qilganini bildiradi. Hozirgi kunda esa butun borliq Unga
tobe bo‘lganini biz ko‘rayotganimiz yo‘q. 9 Ammo “qisqa vaqtgagina farishtalardan past
bo‘lgan” Insonni, ya’ni Isoni biz ko‘rib turibmiz. U inson bo‘lib keldi, Xudoning inoyati
tufayli butun insoniyat uchun azob chekib, o‘ldi. Shu sababdan endi “izzatu sharaf tojini
kiydi.”
10 Xudo hamma narsani yaratgan va hamma narsa Uning ulug‘vorligi uchun
mavjuddir. U ko‘p insonlarni O‘z ulug‘vorligidan bahramand qilish uchun najotga
erishtirmoqchi bo‘ldi. Iso odamlarni najotga boshlab borsin deb, Xudo Uni azob–
uqubatlar orqali barkamol Sardor qilib tayyorladi. 11 Insonlarni gunohlardan poklovchi
Iso va poklangan insonlarning hammasi bir oilaga mansubdir. Shu sababdan Iso ularni
birodarlarim deb atashdan or qilmay, Xudoga shunday deydi:

> 12 “Birodarlarimga Sen haqingda aytaman,
> Jamoa orasida Senga hamdu sano o‘qiyman.”*

13 Iso yana shunday deydi:

> “Umidim Xudodadir”,

so‘ng yana aytadi:

> “Xudo bergan farzandlarim bilan birga Men shu yerdaman!”*

14 Bu farzandlar foniy bandalar bo‘lganlari uchun, Iso ham, ular singari, inson bo‘ldi.
Zero, U O‘z o‘limi orqaligina o‘lim keltiruvchi iblisning qudratini yo‘q qila oldi 15 va umr
bo‘yi o‘lim qo‘rquviga qul bo‘lgan odamzodni ozod qilishga muvaffaq bo‘ldi. 16 Iso
farishtalarni emas, balki Ibrohimning naslini* qullikdan qutqargani aniq. 17 Shu
sababdan, U har jihatdan birodarlariga o‘xshagan bo‘lishi shart edi. Shundagina U xalqni
gunohlaridan poklay oladigan, Xudoning xizmatidagi rahmdil va sodiq Oliy ruhoniy
bo‘la olardi. 18 Isoning O‘zi sinovdan o‘tib, azob chekdi. Shuning uchun U sinovdan
o‘tayotganlarga yordam bera oladi.

3–BOB

Iso Masih — Muso payg‘ambardan yuqori

1 Ey birodarlarim, sizlar Xudoning aziz xalqisizlar. Xudo sizlarni O‘z huzuriga
kirishga da’vat etgan. Kelinglar, Xudoning Elchisi va biz e’tirof etgan e’tiqodimizning
Oliy ruhoniysi Iso haqida mulohaza qilaylik. 2 Xudo Isoni Oliy ruhoniy qilib tayinladi.
Muso Xudoning xonadonida sodiq xizmatkor bo‘lgani kabi, Iso ham Xudoga sodiq bo‘ldi.
3 Biroq Iso Musodan ko‘ra, ko‘proq ulug‘vorlikka loyiq bo‘ldi. Axir, uyning o‘zi emas, uni
qurgan odam ko‘proq e’tiborga sazovor–ku! 4 Albatta, har bir uyning quruvchisi bor,
ammo aslida butun borliqning binokori — Xudo. 5 Muso sodiq qul edi*. U Xudoning
butun xalqi orasida eng ishonchlisi bo‘lib, uning xizmati kelajakda oshkor bo‘ladigan
ilohiy haqiqatning sharpasi edi, xolos. 6 Masih esa sodiq O‘g‘il edi. Unga Xudoning
xonadonini boshqarish topshirildi. Xudoning xonadoni esa bizmiz. Biz faqat jasur bo‘lib,
umidimizni mahkam tutishimiz kerak*. Axir, biz bu umidimiz bilan faxrlanamiz.

Imondan qaytmanglar!

7 Shunday ekan, Muqaddas Ruhning aytgan ushbu gaplarini yodingizda tuting:

> “Qaniydi, bugun Mening ovozimga quloq solsangiz!
> 8 Menga qarshi isyon qilgan otalaringizday tosh yurak bo‘lmanglar,
> Meni sahroda sinagan o‘sha ajdodlaringizday* bo‘lmanglar.
> 9 Otalaringiz qirq yil qilgan ishlarimni ko‘rsa ham,
> U yerda Meni sinab ko‘rdilar.
> 10 Shu bois Men bu nasldan g‘azablanib, dedim:
> «Ular doim Mendan yuz o‘girishadi,
> Amrlarimga bo‘ysunishdan bosh tortishadi.»
> 11 Shuning uchun g‘azablanib, ont ichdim:
> «Ular farog‘at diyorimga kirmaydi», dedim.”*

12 Ey birodarlarim, ehtiyot bo‘linglar! Yomon niyatga qalbingizdan o‘rin bermanglar,
Xudoga bo‘lgan ishonchingizni yo‘qotmanglar. Aks holda, bu illatlar sizlarni barhayot
Xudodan qaytaradi. 13 Har kunni Muqaddas bitiklardagi “bugun” deb bilib, bir–
biringizga nasihat qilinglar. Tag‘in birortangiz gunohga aldanib, yuragingizni tosh
qilmanglar. 14 Axir, biz Masihga sherik bo‘ldik. Faqat boshida ega bo‘lgan imonimizni
oxirigacha mahkam tutishimiz lozim. 15 Bir–biringizga Zaburdagi shu so‘zlarni eslatib
turinglar:

“Qaniydi, bugun Mening ovozimga quloq solsangiz!
Menga qarshi isyon qilgan otalaringizday tosh yurak bo‘lmanglar!”

16 O‘shanda Xudoning ovozini eshitib turib, isyon qilgan kim edi? Muso Misrdan olib
chiqqanlarning hammasi!* 17 Qirq yil davomida Xudo kimdan g‘azablangandi? Gunoh
qilgan odamlardan! Ular hammasi o‘ldi, sahro ularga qabr bo‘ldi. 18 Xudo ont ichib: “Ular
farog‘at diyorimga kirmaydi”, deya kim haqida aytgan edi? Albatta itoatsiz odamlar
haqida! 19 Demak, ular Xudoga ishonmaganlari uchun farog‘at diyoriga kira olmadilar.

4–BOB

Xudo O‘z xalqiga va’da qilgan farog‘at

1 Xudoning farog‘at diyoriga kirish haqidagi va’dasi hanuz kuchda qolgan. Shuning
uchun ehtiyot bo‘laylik, tag‘in va’da qilingan farog‘at diyoriga kirishga nomunosib bo‘lib
qolmaylik. 2 Axir, farog‘at diyori haqidagi Xushxabar Isroil xalqiga sahroda e’lon
qilinganday, bizga ham e’lon qilindi. Ammo ular bu xabarni eshitsalar ham, uning
qadriga yetmadilar. Ular bizga o‘xshab, bu xabarni eshitdilar, ammo unga ishonmadilar.
3 Biz ishonganimiz uchun farog‘at diyoriga kiramiz. Ishonmaganlar haqida esa Xudo
shunday degandi:

“Shuning uchun g‘azablanib, ont ichdim:
«Ular farog‘at diyorimga kirmaydi.»”*

Holbuki, Xudo farog‘at diyorini dunyoni yaratgandayoq tayyorlab qo‘ygan. 4 Chunki
yaratilishning yettinchi kuni haqida Muqaddas bitiklarda shunday deyilgan:

“Yettinchi kuni Xudo hamma ishlarini bitirib, dam oldi.”*

Ammo ba’zi odamlar Xudoning farog‘at diyoriga kirmadilar. 5 Yuqoridagi parchada
aytilganday:

“Ular farog‘at diyorimga kirmaydi.”

6 Bundan anglashiladiki, farog‘at haqidagi Xushxabarni birinchi bo‘lib eshitganlar o‘z
itoatsizligi uchun farog‘at diyoriga kirmagan edilar. Ammo ba’zi kishilarga u yerga kirish
uchun imkoniyat bor. 7 Xudo o‘sha kishilarni ko‘zda tutib, “bugun” deb atalgan yana bir
kunni* tayin qildi. Ko‘p yillardan keyin bu kun haqida U Dovud orqali gapirdi. Xudoning
bu gapini men oldin ham aytib o‘tganman*:

“Qaniydi, bugun Mening ovozimga quloq solsangiz!
Tosh yurak bo‘lmanglar!”

8 Agar Yoshua* Isroil xalqini farog‘atga erishtirganda edi, o‘shandan keyin Xudo boshqa
bir kun haqida gapirmagan bo‘lardi. 9 Xullas, Xudoning xalqini Shabbat kuniga*
o‘xshagan farog‘at kutmoqda. 10 Xudoning farog‘at diyoriga kirganlar, Xudo kabi o‘z
ishlaridan dam oladilar, chunki Xudo ham dunyoni yaratib bo‘lgandan keyin dam olgan
edi. 11 Shunday ekan, farog‘at diyoriga kirishga jon kuydiraylik. Aks holda, biz ham Isroil

xalqiday itoatsizlik qilib, farog‘atdan bebahra qolamiz.

Xudo kalomining ta’sirchanligi

12 Xudoning kalomi jonli va ta’sirli, har qanday dudama qilichdan o‘tkirroqdir. U jon
bilan ruhni, bo‘g‘inlar bilan ilikni ajratgudek suqilib kiradi. Xudoning kalomi xayolu
yurakning niyatlarini fosh etadi. 13 Butun borliq Xudoning ko‘zi oldida yap–yalang‘och
va ochiqdir. Hech kim va hech narsa Undan pinhon emas. Biz Unga hisob beramiz!

Ulug‘ Oliy ruhoniyimiz Iso

14 Shunday ekan, o‘zimiz e’tirof etgan e’tiqodimizni mahkam tutaylik! Zotan, bizning
ulug‘ Oliy ruhoniyimiz bor. Xudoning samodagi huzuriga kirib borgan bu Oliy
ruhoniyimiz Xudoning O‘g‘li Isodir. 15 U ojizliklarimizga hamdard bo‘la oladi. Axir, U biz
kabi har tomonlama sinalgan, lekin bizga o‘xshab gunoh qilmagan. 16 Kelinglar, inoyatli
Xudoyimizning taxtiga jasorat bilan yaqinlashaylik. Shunda U bizga marhamat
ko‘rsatadi, Uning inoyati zarur vaqtda bizga yordam beradi.

5–BOB

1 Har bir oliy ruhoniy insonlar orasidan tanlab olinadi. U Xudoga gunohlar uchun
nazrlar va qurbonliklar keltirib, xalq vakili bo‘lib xizmat qiladi. 2 G‘aflatda gunoh qilib
qo‘ygan odamlarni oliy ruhoniy tushunadi, chunki u o‘zi ham inson, kamchiliklari bor.
3 Shu sababdan u nafaqat xalqning gunohlari uchun, balki o‘zining gunohlari uchun ham
qurbonliklar keltirishi zarur. 4 Hech kim o‘z xohishi bilan oliy ruhoniy bo‘la olmaydi,
balki Horunga* o‘xshab Xudo tomonidan tayinlanadi.
5 Shu tariqa, Masih ham oliy ruhoniylik sharafiga intilmadi, bunday martabaga U
da’vogarlik qilmadi. Aksincha, Unga:

> “Sen Mening O‘g‘limsan,
> Bugun Men Senga Ota bo‘ldim”*,

— deb aytgan Xudo Uni Oliy ruhoniy qilib tayinladi. 6 Zero, boshqa bir joyda Xudo Unga
shunday degan:

> “Sen Maliksidiq* singari,
> To abad ruhoniysan.”*

7 Masih bu dunyoda yashagan paytda ko‘z yosh to‘kib, Xudoga faryod qildi, Unga
iltijo qilib yolvordi*. Chunki Xudo Uni o‘limdan qutqarishga qodir ekanligini Masih bilar
edi. U Xudoni yuksak darajada e’zozlagani uchun Uning iltijosi ijobat bo‘ldi. 8 Garchi U
Xudoning O‘g‘li bo‘lsa ham, azob–uqubat chekib, itoatkorlikning asl ma’nosini angladi.
9 Xudo azoblar orqali Masihni barkamol qildi. Shunday qilib, Unga itoat qilganlarning
hammasi uchun Masih abadiy najot manbai bo‘ldi. 10 Xudo Masihni “Maliksidiq singari
Oliy ruhoniy” deb e’lon qildi.

Imonda ulg‘ayinglar

11 Oliy ruhoniyimiz haqida sizlarga yana ko‘p gapirgan bo‘lardim–u, ammo qanday
qilib sizlarga tushuntirishni bilmayman, chunki sizning aqlingiz o‘tmas bo‘lib qolgan.
12 Sizlar o‘zlaringiz allaqachon ustozlik qilishingiz kerak edi! Ammo siz boshqalarga

emas, boshqalar sizlarga Xudo kalomining ilk asoslarini o‘rgatishlari kerak. Sizlar hali ham sutga muhtojsiz! Quyuq ovqatni hazm qila olmaysiz. 13 Sut bilan oziqlanadigan har bir kishi hali chaqaloq. U to‘g‘ri bilan noto‘g‘rining farqiga bormaydi. 14 Quyuq ovqat esa ulg‘ayganlar uchundir. Ular tajriba orttirib, yaxshini yomondan farqlay oladilar.

6–BOB

1 Shunday ekan, Masihning boshlang‘ich ta’limotida to‘xtab qolmaylik. Aksincha, imonda yetuk bo‘lishga intilaylik. Hadeb ta’limotning ilk asoslarini o‘rganavermaylik. O‘limga yetaklovchi ishlardan tavba qilish va Xudoga ishonish haqida, 2 poklanish marosimlari* va qo‘l qo‘yib duo qilish haqida, o‘liklarning tirilishi va abadiy hukm haqida qayta–qayta ta’lim olishimiz shart emas. 3 Endi Xudoning madadi bilan yetuklik sari qadam tashlaylik.

Ogohlikka va umidvorlikka chorlovchi so‘zlar

4 Nahotki Xudodan yuz o‘girgan odamni yana tavbaga olib kelib bo‘lsa?! Bunday odam Xudoning nurini ko‘rib, samoviy in’omdan lazzat olgan, Muqaddas Ruhdan bahramand bo‘lib, 5 Xudo kalomining ezguligini totib ko‘rgan va kelajak dunyoning qudratini o‘z tajribasida ko‘rgan. 6 Agar shularga qaramay, u Xudodan qaytsa, ikki dunyoda ham tavba qilmaydi! Chunki bu qilmishi bilan Xudoning O‘g‘lini go‘yo boshqatdan xochga mixlab, hammaning oldida Uni sharmanda qilayotganday bo‘ladi.

7 Xudoning yo‘lidan yurgan odamni mo‘l–ko‘l yomg‘irga to‘ygan yerga o‘xshatsa bo‘ladi. Bunday yer dehqonlar uchun yaxshi hosil yetishtirib, Xudodan baraka topadi. 8 Xudodan qaytgan odam esa yantog‘u tikan bosgan yerga o‘xshaydi. Bunday yer foydasiz bo‘lib, la’natga duchor bo‘lish xavfi ostida qoladi. Oxir–oqibatda esa olovga yem bo‘ladi.

9 Sevimli birodarlarim, qattiq gapirganimga qaramay, sizlardan ko‘nglim to‘q. Sizlar najotga eltuvchi to‘g‘ri yo‘ldan ketayotganingizga ishonchim komil. 10 Axir, Xudo adolatlidir. U sizning ishingizni unutmaydi, Unga bo‘lgan muhabbatingiz tufayli azizlariga qilgan va qilayotgan xizmatlaringizni yodida tutadi. 11 Xizmatdagi bu shijoatingizni har biringiz oxirigacha asrashingizni chin dildan xohlaymiz. Chunki shundagina Masihga bo‘lgan umidingiz so‘nmaydi. 12 Erinchoq bo‘lmanglar. Aksincha, imoni va sabr–toqati tufayli Xudoning va’dalaridan bahramand bo‘lgan birodarlardan o‘rnak olinglar.

Xudoning o‘zgarmas va’dasi umid bag‘ishlaydi

13 Xudoning Ibrohimga bergan va’dasini eslanglar. O‘shanda Xudo O‘z nomi haqi qasam ichgandi. Zero, qasam ichish uchun O‘zidan buyukroq biron zot yo‘q edi.
14 O‘shanda Xudo qasam ichib, shunday degandi:

> “Senga albatta qut–baraka beraman,
> Naslingni son–sanoqsiz qilaman.”*

15 Ibrohim sabr–toqat qilib, berilgan va’daga erishdi.

16 Odamlar qasam ichganlarida o‘zlaridan buyukroq bo‘lgan kimsaning ismi haqi qasam ichadilar. Qasam aytilgan gapning tasdig‘i hisoblanadi va har qanday bahsga xotima beradi. 17 Shunga o‘xshab, Xudo ham O‘z va’dasini qasam bilan tasdiqladi. Chunki

xalqiga baraka berishni va’da qilgan Xudo shu orqali O‘z irodasining qat’iy ekanligini aniq ko‘rsatmoqchi edi. 18 Xudo yolg‘on gapirmaydi! Uning bergan va’dasi va ichgan qasami hech qachon o‘zgarmaydi. Xudoning tasdiqlagan va’dasidan endi biz kuchli dalda olib, U bergan umidni mahkam tutaylik. Axir, biz Xudodan panoh topganmiz. 19 Bu umid jonimiz uchun tebranmas, mustahkam langardaydir. Umidimiz bizni samoviy Chodirdagi* pardaning orqa tarafiga, Xudoning huzuriga olib kiradi. 20 Iso bizdan oldin u yerga kirib, biz uchun yo‘l ochib berdi. U Maliksidiq* singari to abad Oliy ruhoniyimiz bo‘ldi.

7–BOB

Ulug‘ ruhoniy Maliksidiq

1 Maliksidiq* — Salim* shohi va Xudoyi Taoloning ruhoniysi edi. Ibrohim to‘rtta shohni mag‘lub etib, qaytib kelayotganda, Maliksidiq uni kutib olgani chiqib, duo qilgan edi. 2 Ibrohim esa qo‘lga kiritgan hamma o‘ljasining o‘ndan birini Maliksidiqqa bergandi.

Maliksidiq ismining ma’nosi “adolat shohi” demakdir. U yana “tinchlik shohidir”, chunki Salim “tinchlik” ma’nosini beradi. 3 Uning na otasi, na onasi, na nasabnomasi bor. Hayotining boshi ham, oxiri ham yo‘q. U Xudoning O‘g‘li singari, to abad ruhoniy bo‘lib qoladi.

4 Maliksidiq qanchalik buyuk zot ekanligini bilib qo‘ying! Hatto ulug‘ bobokalonimiz Ibrohim ham o‘ljasining o‘ndan birini unga bergandi. 5 Levi naslidan bo‘lgan ruhoniylar* esa Xudoning qonuni bo‘yicha Isroil xalqidan, ya’ni o‘z birodarlaridan ushr* yig‘ishlari kerak edi. Vaholanki, Isroil xalqining hammasi Ibrohimning avlodlaridir. 6 Maliksidiq Levi naslidan bo‘lmasa–da, Ibrohimdan ushr oldi. So‘ng Ibrohimni — Xudoning va’dalarini olgan zotni duo qildi. 7 Hammamizga ma’lumki, duo qilgan odam duo olgan odamdan ulug‘roqdir. 8 Ushr yig‘adigan ruhoniylar foniy bandalar edi. Ibrohimdan ushr olgan Maliksidiq esa, Muqaddas bitiklarda yozilishicha, hanuz barhayotdir. 9 Hatto aytishimiz mumkinki, ushr oluvchi levi ruhoniylari ham Ibrohim orqali Maliksidiqqa ushr bergandilar. 10 Chunki Maliksidiq Ibrohimni kutib olganda, levi ruhoniylari hali bobokaloni Ibrohimning pushti kamarida edilar.

Maliksidiqqa o‘xshash boshqa bir Ruhoniy

11 Levi ruhoniylari bizni barkamol qila olmaydilar. Shuning uchun Xudo Horunning nasabidan* bo‘lgan ruhoniyni emas, balki Maliksidiqqa o‘xshagan boshqa bir ruhoniyni* yubordi. Isroil xalqiga berilgan qonunlar levi ruhoniylari orqali joriy qilingan edi.
12 Shunday ekan, Xudo yangi ruhoniylikni tashkil qilganda, yangi qonunlarni ham joriy qildi. 13-14 Buni biz aytib o‘tgan ruhoniy, ya’ni Rabbimiz Iso misolida aniq ko‘rishimiz mumkin. Biz bilamizki, Rabbimiz Iso Levi qabilasidan emas, balki Yahudo qabilasidan kelib chiqqan. Yahudo qabilasidan hech kim ruhoniy bo‘lib qurbongohda xizmat qilmagan. Buning ustiga, Muso bu qabila haqida gapirganda ruhoniylikka doir biron ko‘rsatma bermagan. 15 Yangi qonunlar joriy qilinganini yana shundan aniq ko‘rishimiz mumkin: Rabbimiz xuddi Maliksidiq kabidir. 16 Uning ruhoniyligi bu foniy dunyoning talabiga, ya’ni nasl–nasabga doir qoidalarga* asoslanmagan, balki Maliksidiqning ruhoniyligi singari, cheksiz hayot qudratiga asoslangan. 17 Zotan, Muqaddas Bitikda U haqda shunday yozilgan:

“Sen Maliksidiq singari,
To abad ruhoniysan.”*

18 Demak, avvalgi qonun–qoidalar ojiz va samarasiz bo‘lgani uchun bekor qilindi.
19 Chunki qonun biron–bir kishini kamolotga yetkaza olmagan. Endi qonun o‘rniga bizga
a’loroq bir umid berildi, biz bu umid orqali Xudoga yaqinlasha olamiz.
20-21 Bundan tashqari, Xudo Isoni Oliy ruhoniy qilib tayinlaganda ont ichgandi.
Muqaddas bitiklarda bu haqda shunday deyilgan:

“Egamiz ont ichgan, qarorini o‘zgartirmas:
«Sen to abad ruhoniysan.»”

Ammo levi ruhoniylari tayinlanganda, Xudo biron marta ont ichmagan. 22 Demak, Xudo
Iso orqali bizni a’loroq bir ahdga erishtirdi, Isoning O‘zi bunga kafildir*.
23 Yana bir farq shundaki, levi ruhoniylarining soni ko‘p edi, chunki o‘lim
ruhoniylarga o‘z xizmatlarini davom ettirishga monelik qilar edi. 24 Ammo Iso mangu
bo‘lgani uchun to abad ruhoniy bo‘lib xizmat qiladi. 25 Shuning uchun U O‘zi orqali
Xudoga yaqinlashuvchilarga abadiy najot bera oladi. Axir, Iso barhayot bo‘lib, ular
uchun Xudoga iltijo qiladi.
26 Bizga aynan shunday — muqaddas, beg‘ubor va pok Oliy ruhoniy kerak edi. Iso
gunohkorlardan ayrilgan, osmondan ham yuksakka ko‘tarilgan. 27 U boshqa oliy
ruhoniylar kabi, har kuni oldin o‘z gunohlari uchun, keyin xalqning gunohlari uchun
qurbonlik keltirishi kerak emas. Chunki U bir marta O‘zini qurbon qilib, xalqning
gunohlari uchun keltiriladigan hamma qurbonliklarga chek qo‘ydi. 28 Tavrotga binoan
oliy ruhoniylikka ojiz bandalar tayinlanardi. Ammo endi Xudoning ont ichib bergan
va’dasiga* binoan oliy ruhoniylikka Xudoning O‘g‘li tayin etildi. U barkamollikka
erishgan va to abad barkamol bo‘lib qoladi.

8–BOB

Oliy ruhoniyimiz Iso — yangi ahdning Vositachisi

1 Aytgan gaplarimizning mag‘zi quyidagicha: bizning shunday Oliy ruhoniyimiz
borki, U samoda, Ulug‘vor Xudo taxtining o‘ng tomonida o‘tiribdi*. 2 U samodagi haqiqiy
Chodirning* Eng muqaddas xonasida xizmat qilyapti. Bu Chodirni inson emas, balki
Egamizning O‘zi qurgan.
3 Har bir oliy ruhoniy Xudoga nazrlar va qurbonliklar keltirish uchun tayin etiladi.
Shunday ekan, bizning Oliy ruhoniyimizning ham keltiradigan biror nazri bo‘lishi lozim
edi. 4 Agar U yer yuzida bo‘lganda edi, umuman ruhoniy bo‘lolmas edi. Chunki Musoning
qonunida buyurilgan nazrlarni keltiruvchi ruhoniylar bor. 5 Ular yer yuzidagi Muqaddas
chodirda xizmat qiladilar. Bu Chodir bor–yo‘g‘i samodagi haqiqiy Chodirning nusxasi va
soyasidir. Negaki, Xudo Musoga Chodir qurishni buyurganda, unga shunday degandi:
“Ehtiyot bo‘l, hamma narsani Men senga tog‘da ko‘rsatgan namunaga muvofiq yasat.”*
6 Ammo Isoga berilgan ruhoniylik xizmati boshqa ruhoniylarnikiga qaraganda buyukdir.
Chunki Uning vositasida tuzilgan yangi ahd avvalgi ahddan* ulug‘roq va a’loroq
va’dalarga asoslangan.
7 Darvoqe, agar avvalgi ahd kamchiliksiz bo‘lganda edi, yangi ahd kerak bo‘lmasdi.

8 Odamlar avvalgi ahd talablarini bajara olmasliklariga Xudoning ko‘zi yetib, U O‘z
xalqiga shunday degan edi:

> “Shunday kunlar keladiki, Men Isroil va Yahudo xalqlari bilan yangi ahd
> tuzaman. 9 Bu yangi ahd Men ularning ota–bobolari bilan tuzgan ahdga
> o‘xshamaydigan bo‘ladi. Men ota–bobolarini qo‘lidan yetaklab, Misrdan olib
> chiqqanimda, ular bilan ahd tuzgan edim. Ammo ular o‘sha ahdimga rioya
> qilishmadi, shuning uchun Men ulardan yuz o‘girdim.
> 10 Men kelajakda Isroil xalqi bilan tuzadigan ahd shunday bo‘ladi: Men
> qonunlarimni odamlarning ongiga solib qo‘yaman, qonunlarimni ularning
> yuraklariga yozaman. Men ularning Xudosi, ular esa Mening xalqim bo‘ladilar.
> 11 Shundan keyin odamlar bir–biriga: «Egamizni tanib–biling», demaydigan
> bo‘lishadi. Chunki ularning hammasi — kattasidan tortib, kichigigacha Meni
> biladigan bo‘ladi. 12 Men ularning ayblarini kechiraman, gunohlarini hech qachon
> esga olmayman.”*

13 Xudo yangi ahdni tilga olganda, avvalgi ahdning eskirib ketganligini ko‘rsatdi.
Eskirgan narsa esa tez orada yo‘q bo‘lib ketadi.

9–BOB

Avvalgi ahd davridagi diniy xizmat

1 Darvoqe, avvalgi ahd* davrida sajdaga oid qonun–qoidalar va bu dunyoga mansub
bo‘lgan bir sajdagoh bor edi. 2 Bu sajdagoh Chodir* bo‘lib, ikki xonadan iborat edi.
Birinchi xona Muqaddas xona deb atalardi. U yerda chiroqpoya, xontaxta va xontaxta
ustida muqaddas nonlar bor edi. 3 Chodirning ichki pardasi orqasida Eng muqaddas
xona deb atalgan yana bir xona bor edi. 4 Bu xonada tutatqi tutatiladigan oltin
qurbongoh va har tomoni oltin bilan qoplangan Ahd sandig‘i turardi. Ahd sandig‘i ichida
manna* solingan oltin idish, Horunning gullagan hassasi va amrlar yozilgan ikkita tosh
lavha bor edi*. 5 Sandiqning qopqog‘i ustiga Xudo huzurining ramzi — qanotli karublar*
o‘rnatilgandi. Karublarning tepaga ko‘tarilgan qanotlari qopqoqni berkitib turardi.
Bularning hammasini hozir birma–bir aytishning mavridi emas.

6 Xullas, Chodir shu tarzda jihozlangan edi. Ruhoniylar har kuni Chodirning birinchi
xonasiga kirib, o‘z xizmatlarini ado etardilar. 7 Chodirning ichki — Eng muqaddas
xonasiga esa faqatgina oliy ruhoniy yilda bir martagina kirardi. U doim o‘zi bilan
qurbonlik qonini olib kirardi. Bu qonni o‘zining va xalqning bilmasdan qilgan gunohlari
uchun nazr qilardi. 8 O‘rnatilgan o‘sha tartibga binoan, Muqaddas Ruh shuni
ko‘rsatyaptiki, Eng muqaddas xona xalq uchun yopiq. Chodirning birinchi xonasiga oid
bo‘lgan qoidalar hanuz kuchda ekan, samodagi Eng muqaddas xonaga* ham hali yo‘l
yopiq. 9 Bu qoidalar hozirgi zamon uchun ramzdir, ular shunday ma’noni bildiradi:
keltirilgan nazrlar va qurbonliklar Xudoga sajda qiluvchilarning vijdonini poklay
olmaydi. 10 Bu nazrlaru qurbonliklar, shuningdek, yegulik, ichgulik va har xil poklanish
marosimlariga oid udumlar inson tanasi bilan bog‘liq. Bular yangi tartib o‘rnatilguncha
amal qilgan.

Masih — barkamol qurbonlik

11 Endi esa Masih kelgan* xayr–barakalarning Oliy ruhoniysi bo‘ldi. U inson qo‘li
bilan qurilmagan, bu dunyoga mansub bo‘lmagan samodagi mukammal Chodirga* kirdi.
Yerdagi Chodirdan buyukroq bo‘lgan samodagi bu Chodirdan o‘tib, 12 Eng muqaddas
xonaga kirdi. Masih bu xonaga takalar va buqalarning qoni bilan emas, balki O‘z qoni
evaziga kirdi. U yerga bir marta kirib, bizni to abad gunohlardan ozod qildi. 13 Ilgarilari
takalaru buqalarning qoni* hamda kuydirilgan g‘unajinning kuli* harom bo‘lgan
kishilarning ustiga sepilganda, ular jisman poklanardilar. Jonivorlarning qoni bilan
shunday natijaga erishilgan bo‘lsa, 14 Masihning qoni bilan bundan–da buyukroq
natijaga erishsa bo‘ladi! Zero, Masih mangu Ruhning qudrati orqali O‘zini benuqson
qurbonlik sifatida Xudoga bag‘ishladi. Uning to‘kilgan qoni vijdonimizni o‘limga
yetaklovchi ishlardan poklaydi, shunda biz barhayot Xudoga xizmat qila olamiz.
15 Ana shu sababdan Masih yangi ahdning* vositachisi bo‘ldi. Endi da’vat etilgan
odamlar Xudoning va’da qilgan abadiy merosiga ega bo‘la oladilar. Ular avvalgi ahd
davrida berilgan Xudoning qonunini buzib, gunoh qilgan edilar. Masih esa ularni
gunohlaridan xalos qilish uchun qurbon bo‘ldi. 16 Yangi ahdni go‘yo vasiyatga o‘xshatsa
bo‘ladi. Qayerda vasiyat bor bo‘lsa, vasiyat qilgan odamning o‘limi tasdiqlanishi kerak.
17 Chunki vasiyat o‘limdan keyingina kuchga kiradi*. Vasiyat qiluvchi hali tirik ekan,
vasiyatning hech bir ta’siri yo‘q.
18 Shu bois avvalgi ahd ham to‘kilgan qon orqali* kuchga kirgandi. 19 Boshida Muso
Tavrotdagi hamma amrlarni butun xalqqa o‘qib berdi. So‘ng bir tutam issop* va qirmizi
ip yordamida buqalar va takalarning qoni bilan suvni Tavrot kitobiga va butun xalqning
ustiga sepib, 20 dedi: “Shu qon Egamizning sizlar bilan qilgan ahdini tasdiqlaydi.”*
21 Shuningdek, Muso Muqaddas chodir ustiga va sajda marosimlarida ishlatiladigan
barcha ashyolar ustiga qon sepdi. 22 Darhaqiqat, Musoning qonuni bo‘yicha deyarli
hamma narsa qon bilan poklanadi, to‘kilgan qon orqaligina gunohlar kechiriladi.
23 Shu sababdan samoviy Chodirning aksi bo‘lgan bu Chodir va undagi hamma
ashyolar hayvonlarning qoni bilan poklanishi kerak edi. Ammo samoviy narsalar
bundan a’loroq qurbonliklarni talab qiladi! 24 Ana shu maqsadda Masih bizlar uchun
Xudoning huzurida hozir bo‘ldi. U haqiqiy Chodirning soyasigina bo‘lgan bu dunyodagi
Chodirning Eng muqaddas xonasiga emas, balki inson qo‘li bilan qurilmagan samoviy
Chodirga kirdi. 25 Levi naslidan bo‘lgan oliy ruhoniylar har yili Eng muqaddas xonaga
kirib, hayvonlarning qonini nazr qiladilar. Masih esa O‘zini qayta–qayta qurbonlik
qilmadi. 26 Agar Masih har yili O‘zini qurbonlik qilganda edi, dunyo yaratilgandan beri U
qayta–qayta azob chekkan bo‘lardi. Buning o‘rniga U mana shu oxirgi zamonda
odamlarning gunohlarini yuvish uchun bir martagina olamga kelib, O‘zini qurbon qildi.
27 Inson zoti bir marta o‘ladi, so‘ng Xudo tomonidan hukm qilinadi. 28 Shu singari, Masih
ham ko‘plarning gunohlarini O‘z bo‘yniga olish uchun bir marta qurbon bo‘lib, o‘ldi. Bu
dunyoga U qaytib keladi. Bu safar U gunohlarni yuvish uchun emas, balki Uni intizorlik
bilan kutayotgan odamlarga najot berish uchun keladi.

10–BOB

Masih — oxirgi qurbonlik

1 Qonun bo‘lg‘usi xayr–barakalarning asl surati emas, bor–yo‘g‘i soyasidir. Har yili

qonun bo‘yicha Xudoga bir xil qurbonliklar keltiriladi. Demak, qonun bu qurbonliklar orqali Xudoga sajda qiluvchilarni kamolotga yetkaza olmaydi. 2 Bordi–yu, o‘sha odamlar qurbonliklari orqali gunohdan poklana olganlarida edi, ularning vijdoni qiynalmasdi va ular qurbonlik keltirishni bas qilardilar. 3 Holbuki, qurbonliklar har yili odamlarga gunohlarini eslatadi, xolos. 4 Chunki buqayu takalarning qoni hech qachon gunohlarni yuva olmaydi.

5-6 Shuning uchun Masih dunyoga kelganda Xudoga shunday degan edi:

> “Sen qurbonligu nazr istamading,
> Kuydiriladigan qurbonlik hamda
> Gunoh qurbonligidan* mamnun bo‘lmading,
> Itoat qilishim uchun Menga badan hozirlading.
> 7 O‘shanda dedimki: «Mana, Men keldim.
> Muqaddas bitiklarda Men haqimda yozilgan.
> Sening xohishingni ado etish uchun keldim, ey Xudoyim.»”*

8 Dastlab Masih qonun talab qilgan qurbonliklar haqida so‘z yuritib, Xudoga: “Sen qurbonligu nazr istamading, kuydiriladigan qurbonlik hamda gunoh qurbonligidan mamnun bo‘lmading”, — deb aytgan. 9 So‘ng esa haqiqiy itoatkorlikni tilga olib, shunday degan: “Sening xohishingni ado etish uchun keldim, ey Xudoyim.” Bundan ko‘rinib turibdiki, Masih qurbonlik marosimlariga asoslangan avvalgi ahdni* bekor qildi. Uning maqsadi yurakning itoatkorligiga asoslangan yangi ahdni* o‘rnatish edi. 10 Masih Xudoning xohishini bajarib, O‘z tanasini biz uchun qurbon qildi. Bu yagona qurbonligi orqali bizni gunohdan pokladi.

11 Ruhoniylar har kuni Xudoga xizmat qiladilar. Bir xil qurbonliklarni qayta–qayta keltiradilar. Ammo bu qurbonliklar hech qachon gunohni yuva olmaydi. 12 Masih esa gunohlarni abadiy yuvib tashlaydigan yagona qurbonlikni keltirib, Xudoning o‘ng tomonida o‘tirdi*. 13 “Xudo dushmanlarimni oyoqlarim ostiga poyandoz qiladi”, — deb Masih o‘sha vaqtdan beri kutmoqda. 14 Darvoqe, Masih bittagina qurbonlik orqali gunohdan poklagan odamlarini to abad barkamol qildi.

15 Muqaddas Ruh ham bu haqda bizga shahodat berib, dedi:

> 16 “Egamiz shunday demoqda: «Men kelajakda Isroil xalqi bilan tuzadigan ahd
> shunday bo‘ladi: Men qonunlarimni odamlarning yuragiga solib qo‘yaman,
> qonunlarimni onglariga yozaman. 17 Men ularning gunohlariyu qabihliklarini
> hech qachon esga olmayman.»”*

18 Demak, Xudo gunohlarni kechirgan bo‘lsa, boshqa qurbonlik keltirishning hojati yo‘q.

Imonimizga sodiq qolaylik

19 Ey birodarlarim, Iso Masihning qoni tufayli endi biz Eng muqaddas xonaga dadillik bilan kira olamiz. 20 Chunki Iso biz uchun yangi yo‘lni ochib berdi. U Chodirdagi parda orqali, ya’ni qurbon qilingan O‘z tanasi orqali hayot sari yetaklaydigan yo‘lni ochdi.
21 Ha, bizning ulug‘ Ruhoniyimiz bor, U Xudoning butun xonadoni ustidan mas’uldir.
22 Shunday ekan, samimiy qalb va mustahkam ishonch bilan Xudoga yaqinlashaylik. Axir, Masih O‘z qoni bilan qalblarimizni tozalab, vijdonimizni qiynagan hamma

gunohlardan pokladi*. Badanimiz ham toza suv bilan yuvildi*. 23 Endi o‘zimiz e’tirof
etgan umidimizni ikkilanmay mahkam tutaylik. Chunki va’da bergan Xudo O‘z so‘ziga
sodiqdir. 24 Biz bir–birimizga e’tiborli bo‘laylik, bir–birimizni mehr–muhabbatga va
xayrli ishlarga chorlaylik. 25 Ba’zi odamlarga o‘xshab, yig‘ilishlarimizni qoldirmaylik.
Aksincha, Rabbimiz Isoning keladigan kuni yaqinlashib qolganini bilib, bir–birimizni
yanada ko‘proq ruhlantiraylik.
26 Agar biz haqiqatni bilib olgandan keyin, ataylab gunoh qilishda davom etsak, bu
gunohlarimizni hech qanday qurbonlik yuva olmaydi. 27 Shunda qo‘rquv ichra Xudoning
hukmini kutishdan boshqa ilojimiz qolmaydi. Oqibatda, Xudoning dushmanlari bilan
birga lovullagan olovda yonish bizning qismatimiz bo‘ladi. 28 Musoning qonuniga
bo‘ysunishni rad etgan odam ikki yoki uch guvohning shahodati asosida
shafqatsizlarcha o‘ldirilardi. 29 Shunday ekan, Xudoning O‘g‘lini oyoq osti qilgan odamni
qanday jazo kutishini bir tasavvur qilib ko‘ringlar–a! Masihning ahd qoni bilan poklanib,
so‘ng uni bulg‘agan odamning holi nima kechadi?! Xudoning inoyat Ruhini haqorat
qilganning holi nima kechadi?! 30 Axir, biz quyidagi so‘zlarni aytgan Xudoni yaxshi
bilamiz:

> “Men qasos olaman, jazosini beraman*.
> Men O‘z xalqimni hukm etaman*.”

31 Ha, barhayot Xudoning qo‘liga tushib qolish naqadar dahshatlidir!
32 O‘tmishingizni eslanglar. O‘shanda sizlar Xudoning nurini ko‘rib, ko‘p azob–
uqubatlarga bardosh bergan edingizlar. 33 Ba’zida sizlarni hammaning oldida
haqoratlab, xor qilishardi. Boshqa paytlarda bunday ahvolda qolgan birodarlaringizga
yon bosardingiz. 34 Qamoqda bo‘lganlarga hamdard bo‘lardingiz, mulkingiz musodara
qilinganda, buni xursandchilik bilan qabul qilardingiz, chunki sizlarda boqiy boylik
borligini bilardingiz. 35 Shunday ekan, oldingiday imonda qat’iyatli bo‘linglar! Shunda
buyuk mukofot olasizlar. 36 Sabr–toqatli bo‘lib, Xudoning irodasini bajaringlar. Shunda
Xudoning va’dasiga erishasizlar. 37 Axir, Muqaddas bitiklarda aytilganday*, kelishi kerak
bo‘lgan Zot hademay keladi. U kech qolmaydi. 38 Xudoning solihlari Unga bo‘lgan
sadoqati tufayli tirik qolishadi. Bordi–yu, birortasi imondan qaytsa, Xudo undan rozi
bo‘lmaydi.
39 Biz esa imondan qaytib, halok bo‘ladigan odamlardan emasmiz. Biz imonimizga
sodiq qolgan, najot topgan odamlarmiz.

11–BOB

Imon nima?

1 Imon — umid qilingan narsalarning amalga oshishiga ishonish, ko‘rinmaydigan
narsalarga amin bo‘lish demakdir. 2 Imon tufayli ota–bobolarimiz Xudoning maqtoviga
sazovor bo‘ldilar.

Qadimgi imon qahramonlari

3 Imon tufayli biz koinot Xudoning kalomi bilan yaratilganini anglab olamiz,
ko‘rinadigan moddalar ko‘rinmaydigan voqelikdan vujudga kelganini bilamiz.
4 Imoni tufayli Hobil* Xudoga, Qobildan ko‘ra, yaxshiroq qurbonlikni keltirdi. Xudo

Hobilning qurbonligidan mamnun bo‘lib, Hobilni imoni tufayli solih kishi deb bildi. Hobil o‘lgan bo‘lsa ham, uning imoni hanuz bizga namuna bo‘lib xizmat qilyapti.

5 Imoni tufayli Xano‘x* o‘lmadi. U tiriklayin osmonga ko‘tarilib ketdi. Xano‘x
birdaniga g‘oyib bo‘lib qolgandi, chunki Xudo uni olib ketgan edi. Muqaddas bitiklarda
aytilishicha, Xudo Xano‘xni olib ketmasdan oldin ham undan mamnun edi. 6 Ishonmagan
odam hech qachon Xudoni mamnun qila olmaydi. Axir, Xudoga sajda qilayotgan har kim
Xudoning borligiga ishonishi kerak, Xudoga yuz burganlarga Xudoning O‘zi mukofot
berishiga u amin bo‘lishi kerak.

7 Imoni tufayli Nuh* oilasini qutqarish uchun kema qurgandi. U misli ko‘rilmagan
kulfat haqidagi Xudoning ogohlantirishlarini eshitib, Xudodan qo‘rqib, Unga quloq
solgandi. Qilgan bu ishi bilan u Xudoning butun dunyo ustidan chiqargan hukmini e’lon
qildi. Xudo uni imoni tufayli solih kishi deb bildi.

8 Imoni tufayli Ibrohim* Xudoga itoat qildi. Xudo unga: “Men senga mulk qilib
beradigan yerga bor”, deb buyurganda, Ibrohim qayerga ketayotganini bilmasdan yo‘lga
tushdi. 9 Imoni tufayli u Xudo va’da qilgan yerda o‘rnashdi, musofir bo‘lib, chodirlarda
yashadi. Uning o‘g‘illari Is’hoq va Yoqub ham u kabi kun kechirishdi, chunki Xudo ularga
ham xuddi o‘sha va’dani bergandi. 10 Nega Ibrohim bunday qildi? Chunki u Xudo
tomonidan loyihalashtirilgan va qurilgan, poydevori mustahkam, boqiy shaharni
kutayotgan edi. 11 O‘zi qarib ketgan, xotini Sora esa bepusht bo‘lganiga qaramay,
Ibrohim imoni tufayli farzand ko‘rdi*. Chunki farzandni va’da qilgan Xudo sadoqatli
ekaniga u ishonardi. 12 Shuning uchun bir oyog‘i go‘rda bo‘lgan bu bitta odamdan
osmondagi yulduzlarday, dengiz qirg‘og‘idagi qumday son–sanoqsiz nasl kelib chiqdi.

13 Ibrohim, Is’hoq va Yoqub olamdan o‘tdilar, ammo Xudo bergan va’dasini
bajarishiga ular ishonardilar. Ular Xudo va’da qilgan yurtga erishmadilar, ammo o‘sha
yurtni uzoqdan ko‘rib, xursand bo‘lgan edilar. Ular bu dunyoda kelgindi va musofir
ekanliklarini ochiqchasiga tan oldilar. 14 Musofirligini tan olgan odamlar o‘zlarining
haqiqiy vatanini qo‘msayotganini ko‘rsatadilar. 15 Bordi–yu, ular kelib chiqqan yurtini
qo‘msagan bo‘lganlarida edi, u yerga qaytib borish uchun ilojini topgan bo‘lar edilar.
16 Aslida ular yaxshiroq yurtni, ya’ni samoviy vatanni qo‘msayotgan edilar. Shuning
uchun Xudo O‘zini ularning Xudosi deb atashdan or qilmaydi. Xudo hatto ular uchun bir
shahar hozirlagan edi.

17-18 Xudo Ibrohimni sinovdan o‘tkazayotganda*, Ibrohim o‘z imoni tufayli o‘g‘li
Is’hoqni qurbonlikka olib bordi. Garchi Xudo unga: “Men senga va’da qilgan nasling
Is’hoq orqali kelib chiqadi”*, — deb va’da bergan bo‘lsa–da, u yagona o‘g‘lini qurbonlik
qilishga tayyor edi. 19 Demak, Xudo hatto o‘liklarni ham tiriltirishga qodir ekanligiga
Ibrohim ishonardi. Shuning uchun Xudo Is’hoqni Ibrohimga tiriklayin qaytarib berdi.
Is’hoq o‘likdan tiriladigan hamma odamlarning ramzi bo‘lib xizmat qiladi.

20 Imoni tufayli Is’hoq* o‘z o‘g‘illari Yoqub va Esovni duo qildi. Kelajakda duolari
amalga oshishiga u ishongandi. 21 Imoni tufayli Yoqub* ham Yusufning o‘g‘illarini
birma–bir duo qildi. U olamdan ko‘z yumayotganda ham, o‘z hassasiga suyanganicha,
Xudoga sajda qildi*. 22 Imoni tufayli Yusuf* Isroil xalqining Misrdan chiqib ketishi
to‘g‘risida bashorat qildi. U o‘sha paytda o‘lim to‘shagida yotgan bo‘lib: “Mening
suyaklarimni o‘zlaringiz bilan bu yerdan olib ketinglar”, deb vasiyat qilgandi.

23 Imoni tufayli Musoning ota–onasi* yangi tug‘ilgan Musoni uch oy yashirishdi. Ular
chaqaloqning chiroyli ekanligini ko‘rib, fir’avnning farmonidan qo‘rqishmadi. 24 Muso*

voyaga yetganda imoni tufayli fir’avn qizining o‘g‘li deb atalishni rad etdi. 25 U gunoh
qilib, vaqtinchalik huzur–halovatda yashashdan ko‘ra, Xudoning xalqi bilan birga azob–
uqubat chekishni o‘ziga ravo ko‘rdi. 26 U kelajakdagi mukofotni ko‘zlagani uchun
Masihni deb xo‘rlanishni Misrning xazinalaridan afzal deb bildi. 27 Imoni tufayli Muso
Misrni tark etdi. U fir’avnning g‘azabidan qo‘rqmadi. Go‘yo ko‘rinmas Xudoni
ko‘rgandek, tanlagan yo‘lidan qaytmadi. 28 Imoni tufayli u Isroil xalqiga Fisih* qo‘zilarini
so‘yishni buyurdi. So‘ng qo‘zilarning qonini eshiklar kesakilariga* sepishni buyurdi.
Bundan maqsadi Isroil xalqining to‘ng‘ich o‘g‘illarini Azroildan asrab qolish edi.
29 Imoni tufayli Isroil xalqi Qizil dengizdan* xuddi quruqlikdan o‘tayotgandek kechib
o‘tdi. Misrliklar ham o‘tmoqchi bo‘lishdi, ammo cho‘kib ketishdi.
30 Isroil xalqi yetti kun Yerixo shahri* devorlari atrofida aylanib bo‘lgandan keyin,
ularning imoni tufayli shahar devorlari qulab tushdi. 31 Imoni tufayli fohisha Rahoba*
halok bo‘lmadi. U ayg‘oqchilarga mehmondo‘stlik qilgani uchun Xudoga itoat qilmagan
hamshaharlari bilan birga o‘lmadi.
32 Yana kimni misol qilib keltiray?! Gido‘n, Baraq, Shimsho‘n, Yiftox, Dovud, Shomuil*
va boshqa payg‘ambarlar haqida hikoya qilish uchun vaqtim yetarli emas. 33 Imoni
tufayli ular shohliklarni bosib oldilar, davlatni adolat bilan boshqardilar va Xudo bergan
va’dalarga erishdilar. Sherlarning* jag‘larini yopdilar, 34 lovullagan olovni* o‘chirdilar va
qilich tig‘idan omon qoldilar. Holdan toygan paytlarida kuchga to‘ldilar, jangda
bahodirlik ko‘rsatdilar va o‘zga yurt lashkarlarini tor–mor qildilar. 35 Ayollar* marhum
qarindoshlarini tirilgan holda qaytarib oldilar.
Boshqalar esa imoni tufayli qiynoqlarni boshdan kechirdilar. Ular Xudodan voz
kechib, o‘limdan qutulishlari mumkin edi. Ammo ular bunday qilmadilar, chunki a’loroq
narsani, ya’ni abadiy hayot uchun tirilishni umid qilgan edilar. 36 Ulardan ba’zilari
haqoratu kaltaklarga chidadilar, ba’zilari zanjirband bo‘lib, zindonlarda yotdilar.
37 Ularni toshbo‘ron qildilar*, tanalarini arralab ikkiga bo‘ldilar*, qilichdan o‘tkazdilar.
Ular qo‘y va echki po‘stinlarini kiyib, sarson–sargardon bo‘ldilar, muhtojlikda
yashadilar, zulm ostida qoldilar, xor bo‘ldilar. 38 Ular cho‘l–sahrolarda, tog‘–toshlarda
daydib yurdilar, g‘orlarda, yerning kavaklarida yashirindilar. Aslida dunyo ularning
tirnog‘iga ham arzimas edi!
39 Ular imoni tufayli Xudoning maqtoviga sazovor bo‘ldilar. Shunday bo‘lsa–da,
Xudoning va’dasiga erishmadilar. 40 Xudoga sodiq qolgan bu odamlarni Xudo biz bilan
birga barkamol qilishni istadi. Chunki U bizni ham o‘ylagan holda a’loroq rejani
tayyorlab qo‘ygandi.

12–BOB

Xudoga sodiq qolinglar!

1 Imoni bizga ibrat bo‘lib xizmat qiladigan ana shu odamlarning hammasi atrofimizni
o‘rab olgan. Bu katta olomon bizni kuzatib turarkan, taqdirimizdagi musobaqada sabr–
toqat bilan chopaylik. Yugurishimizga xalaqit berayotgan har qanday yukni, ayniqsa,
to‘sqinlik qilayotgan har qanday gunohni bir chetga uloqtirib tashlaylik. 2 Isoga ko‘z
tikaylik. Axir, bu imon musobaqasida U biz uchun yo‘l ochib, butun masofani bizdan
oldin yugurib o‘tdi. Iso kelajakdagi shodlikka erishish uchun sharmandali o‘limni*
pisand qilmay, xochda azob tortib jon berdi. Hozir esa U Xudo taxtining o‘ng tomonida

o‘tiribdi*. 3 Jasoratingiz so‘nmasligi va ko‘nglingiz cho‘kmasligi uchun Iso haqida fikr yuritinglar. Axir, U gunohkorlar tomonidan ko‘p xo‘rlanib, hammasiga chidagan–ku!

Xudo O‘z farzandlarini tarbiyalaydi

4 Sizlar esa qoningiz to‘kilguncha gunohga qarshi kurashmadingizlar. 5 Xudoning sizlarga O‘z farzandlari sifatida aytgan mana bu dalda so‘zlarini unutibsizlar:

> “O‘g‘lim, Egamizning tarbiyasiga e’tiborsiz bo‘lmagin,
> Undan tanbeh olganingda ko‘ngling cho‘kmasin.
> 6 Zero, Egamiz yaxshi ko‘rgan bandasini tarbiyalaydi,
> Farzand qilib olgan har bir odamni jazolaydi.”*

7 Chekayotgan azoblaringizni Xudoning tarbiyasi deb bilib, sabr–toqat qilinglar. Chunki Xudo sizlarni O‘z farzandlariday ko‘rib, tarbiya qilyapti. Axir, har bir ota o‘z farzandini tarbiya qiladi–ku! 8 Agar Xudo sizlarni boshqa farzandlarini tarbiyalaganday tarbiyalamasa, demak, sizlar Xudoning farzandlari emas, haromzodasizlar. 9 Biz jismoniy otalarimizning tarbiyasini olib, ularni hurmat qilib kelyapmiz. Shunday ekan, yangi hayotga ega bo‘lish uchun osmondagi Otamizga bundan–da ko‘proq itoat qilishimiz kerak emasmi?! 10 Jismoniy otalarimiz qisqa vaqt davomida, bizni o‘z bilganiday tarbiyalagan edilar. Xudo esa bizning manfaatimizni ko‘zlaydi. Biz U kabi muqaddas bo‘lishimiz uchun Xudo bizni tarbiyalaydi. 11 Odam tarbiya olayotganda xursand bo‘lmaydi, aksincha, qayg‘uradi. Ammo bunday tarbiyani olgan odam keyinchalik tinch–totuv va solih hayot kechiradi.

Xudoning yo‘lidan yuringlar!

12 Sizlarning qo‘llaringiz toliqqan, tizzalaringiz bukilgan, ammo mahkam turing. 13 O‘zingiz uchun to‘g‘ri yo‘lni tanlab yuring*. Toki orangizdagi “ojiz” va “oqsoq” odamlar yiqilmasin, balki shifo topsinlar.

14 Hamma bilan tinch–totuv yashashga harakat qilinglar. Halol hayot kechirishga tirishinglar, aks holda, Egamizni ko‘ra olmaysizlar. 15 Ehtiyot bo‘linglar, tag‘in, o‘zingizni Xudoning inoyatidan mahrum qilib qo‘ymanglar. Oralaringizda achchiq ildiz o‘sishiga yo‘l qo‘ymanglar, aks holda, uning zahri muammolar tug‘dirib, ko‘plaringizni harom qiladi. 16 Qaranglar, orangizda Esovga* o‘xshaganlar bo‘lmasin. Esov to‘ng‘ich o‘g‘il huquqini bir kosa ovqat uchun sotgan axloqi buzuq*, betavfiq bir odam edi. 17 O‘zingizga ma’lumki, keyin Esov va’da qilingan merosni olish uchun otasidan: “Meni duo qiling”, deb so‘radi, ammo otasi uni rad etdi. Esov ko‘z yosh to‘kib, otasiga yolvorsa–da, voz kechgan merosini qaytarib olishga aslo imkon yo‘q edi*.

Xudodan yuz o‘girmanglar!

18 Sizlar yaqinlashgan tog‘ Sinay tog‘i* emas. Sinay tog‘i jismoniy bir tog‘ bo‘lib, unga qo‘l tekkizib ko‘rsa bo‘lardi. U yerda alanga lovullab yonardi, ustini zulmat, qora bulut qoplagan, bo‘ron bosgan edi. 19 Burg‘u sadosi yangrab, Xudoning ovozi eshitilgandi. Buni eshitgan odamlar: “Yolvoramiz, Xudo bizga boshqa gapirmasin”, deb o‘tingandi. 20 Chunki: “Toqqa hatto hayvon ham tegsa, toshbo‘ron qilinsin” degan Xudoning buyrug‘iga ular dosh bera olmagan edilar. 21 Sinay tog‘idagi manzara shu qadar dahshatli ediki, Musoning o‘zi: “Qo‘rqqanimdan titrab ketyapman”, degandi*.

22 Sizlar, aksincha, samodagi Sion tog‘iga* va barhayot Xudoning shahri — samoviy

Quddusga yaqinlashgansizlar. Shod–xurramlik qilgani yig‘ilgan minglab farishtalar oldiga kelgansizlar. 23 Ismlari osmonda yozilgan Xudoning merosxo‘rlariga sizlar sherik bo‘ldingizlar. Hammani hukm qiluvchi Xudoning huzuriga kirdingizlar. Xudo barkamol qilgan solihlarning ruhlari oldiga keldingizlar. 24 Sizlar yangi ahdning* vositachisi Isoning huzuriga kirdingizlar. Isoning qoniga yaqinlashdingizlar. Uning qoni Hobilning qoniga* o‘xshab qasos talab qilmaydi, aksincha, gunohlarimizni yuvish uchun to‘kilgan*.

25 Ehtiyot bo‘linglar, sizlarga gapirayotgan Xudodan yuz o‘girmanglar! Xudo yer yuzida gapirgan vaqtda, Uni rad etganlar halokatdan qutula olmagan edilar. Shunday ekan, biz osmondan gapirayotgan Xudoni rad etsak, ikki dunyoda ham jazodan qutula olmaymiz! 26 O‘sha vaqtda Uning ovozi yerni larzaga solgan edi*. Endi esa U shunday demoqda*:

> “Men yana bir bor yerni larzaga solaman, ammo bu safar osmonni ham titrataman.”

27 “Yana bir bor” degani shuni bildiradiki, yaratilgan butun mavjudot yo‘q bo‘lib ketadi, faqat tebranmas, abadiy mavjudot qoladi.

28 Bizga tebranmas shohlik berilgan. Shunday ekan, Xudodan minnatdor bo‘lib, ehtirom va qo‘rquv ila Unga manzur ravishda sajda qilaylik. 29 Axir, bizning Xudoyimiz yamlamay yutadigan olovdir*.

13–BOB

So‘nggi nasihatlar

1 Bir–biringizni birodarlarday yaxshi ko‘rishni davom ettiringlar. 2 Mehmondo‘stlikni unutmanglar. Zero, mehmondo‘st bo‘lgan ba’zi odamlar* o‘zlari bilmagan holda farishtalarni mehmon qilishgan. 3 Qamoqdagi birodarlaringizni unutmanglar, go‘yo o‘zingiz ham ular bilan birga qamoqda o‘tirgandek, ularni yodingizda tutinglar. Xo‘rlanganlarni unutmanglar, o‘zingizni ularning o‘rniga qo‘yib ko‘ringlar.

4 Nikohni hammangiz e’zozlanglar. Er–xotinlik munosabatini beg‘ubor saqlanglar. Fahshu zinoga berilganlarni Xudo hukm qiladi.

5 Pulga ko‘ngil bog‘lamanglar, bori bilan qanoatlaninglar. Zero, Xudo:

> “Sizlarni tashlab ketmayman, sizlarni tark etmayman”,

— deb aytgan*. 6 Shuning uchun biz ishonch bilan ayta olamiz:

> “Egam Madadkorimdir, shu bois qo‘rqmayman.
> Insonlar menga nima qila oladi?!”*

7 Xudoning kalomini sizlarga o‘rgatgan ustozlaringizni xotirlanglar. Ularning bosib o‘tgan hayot yo‘li haqida fikr yuritinglar. Imonlariga taqlid qilinglar. 8 Iso Masih kecha, bugun va to abad O‘shadir, U o‘zgarmaydi.

9 Shunday ekan, turli xil g‘alati ta’limotlarga berilib, to‘g‘ri yo‘ldan og‘ib ketmanglar. Qurbonlik marosimlariga doir yegulik–ichgulik qoidalariga rioya qilavermay, yaxshisi, Xudoning inoyati bilan yuragingizni baquvvat qilinglar. Axir, insonlar yaratgan bu

qoidalar ularga rioya qiluvchilarga hech qanday foyda keltirmaydi. 10 Esingizda bo‘lsin,
biz ko‘zga ko‘rinmaydigan, haqiqiy qurbongoh oldida sajda qilmoqdamiz. Yerdagi
qurbongoh* oldida sajda qilayotganlar haqiqiy qurbongohda sajda qila olmaydilar.
11 Ilgarilari oliy ruhoniy xalqni gunohlaridan poklash uchun hayvonlarni qurbonlik
qilardi. U qurbonliklar qonini Muqaddas xonaga olib kirgandan so‘ng, go‘shtini
yemasdan, so‘yilgan hayvonlarni qarorgohdan tashqarida kuydirardi*. 12 Shu singari, Iso
ham shahar* darvozasidan tashqarida azob chekib o‘ldi. U O‘z qonini to‘kib, xalqini
gunohlardan pokladi. 13 Kelinglar, endi biz ham qarorgoh tashqarisiga — Isoning oldiga
chiqaylik. U bilan birga xo‘rliklarga chidaylik. 14 Zero, bizning bu dunyoda doimiy
maskanimiz yo‘q, biz bo‘lg‘usi shaharga ko‘z tikkanmiz. 15 Shunday ekan, Iso orqali
Xudoga hamdu sano nazrlarini taqdim qilaveraylik. Isoni Rabbimiz deb e’tirof etishimiz
Xudoga qurbonlikday bo‘lsin. 16 Yaxshilik qilishni va bir–birimizga yordam berishni
unutmaylik, chunki bunday nazrlar Xudoga manzurdir.

17 Jamoatdagi yo‘lboshchilaringizga quloq solinglar, aytganlarini qilinglar. Axir, ular
imon yo‘lida sizlarga posbonlik qiladilar, Xudoning oldida sizlar uchun hisobot
beradilar. Ularga itoat qilsangiz, ular o‘z ishini xursandchilik bilan bajaradilar, bo‘lmasa,
o‘lgan kunidan qiladilar. Bundan sizga nima foyda?!

18 Men uchun ibodat qilinglar. Vijdonim toza ekanligiga aminman. Hurmatga loyiq
hayot kechirishga harakat qilyapman. 19 O‘tinib so‘rayman, men uchun ibodat qilinglar,
toki sizlarning oldingizga tezroq qaytib boray.

So‘nggi duolar

20 Tinchlik beradigan Xudo Rabbimiz Isoni o‘likdan tiriltirdi. Iso O‘z qoni bilan abadiy
ahdni muhrlagani uchun*, Xudo Uni O‘z xalqining ulug‘ Cho‘poni* qilib tayinladi. 21 Shu
qadar buyuk ishlarni qilgan Xudoning xohish–irodasini bajara olishingiz uchun, U
sizlarga har qanday ezgu fazilat va in’om bersin. U O‘zining manzur murod–maqsadini
Iso Masih orqali sizlarda bajo keltirsin. Iso Masihga abadulabad shon–sharaflar bo‘lsin!
Omin.

22 Ey birodarlarim, sizlarga qisqagina maktub yozdim. O‘tinaman, maktubimdagi
nasihatlarni sabr–toqat bilan qabul qilinglar.

23 Aytmoqchi, birodarimiz Timo‘tiy* qamoqdan chiqdi. Agar bu yerga u vaqtida yetib
kelsa, sizlarni ko‘rgani borganimda, uni ham olib boraman. 24 Jamoatdagi hamma
yo‘lboshchilaringizga va barcha Xudoning azizlariga salom aytinglar. Italiyalik
birodarlarimiz sizlarga salom yo‘llayaptilar.

25 Xudoning inoyati hammangizga yor bo‘lsin*.

IZOHLAR

1:1 *ota–bobolarimiz* — Iso Masih kelishidan oldin, Eski Ahd davrida yashagan Isroil xalqi.

1:2 *Bu oxirgi kunlar* — ya'ni Iso Masih tirilgandan keyingi davr (9:26 ga va 1 Yuhanno 2:18 ga qarang).

1:3 *...Xudoning o'ng tomonida o'tirdi* — Zabur 109:1 ga qarang. O'ng tomon muruvvat va baraka o'rni deb hisoblangan.

1:5 Zabur 2:7 ga qarang.

1:5 2 Shohlar 7:14 ga qarang.

1:6 *To'ng'ich O'g'li* — Iso Masihning butun borliq ustidan hukmdor ekanligini bildiradigan unvon (shu bobning 2–oyatiga va Kolosaliklar 1:15-18 ga qarang). Yana Zabur 88:28 ga qarang.

1:6 *bu dunyo* — bu o'rinda muallif kelajak dunyoga ishora qiladi (2:5 ga qarang).

1:6 *...Xudo shunday deb aytadi...* — muallif bu o'rinda Qonunlar 32:43 va Zabur 96:7 ning qadimiy yunoncha tarjimasidan foydalangan.

1:7 Muallif bu o'rinda Zabur 103:4 ning qadimiy yunoncha tarjimasidan foydalangan.

1:8-9 Zabur 44:7-8 ga qarang.

1:10-12 Zabur 101:26-28 ga qarang.

1:13 Zabur 109:1 ga qarang.

2:2 *ota–bobolarimiz* — 1:1 izohiga qarang.

2:2 *Farishtalar orqali ota–bobolarimizga berilgan Xudoning qonuni...* — Qonunlar 33:2-4, Havoriylar 7:53, Galatiyaliklar 3:19 ga qarang.

2:6 *Inson zoti...Inson o'g'li* — Zabur 8:5 oyatining ibroniycha matnida bu ikkala ibora odamzodga ishora qiladi (Zabur 8:5 izohiga qarang). Ammo muallif Zaburdan olingan bu so'zlar bilan odamzodning komil vakili bo'lgan Iso Masihni nazarda tutgan. Iso ko'pincha o'ziga nisbatan Inson o'g'li unvonini ishlatgan. To'liqroq ma'lumotga ega bo'lish uchun lug'atdagi INSON O'G'LI iborasiga qarang.

2:7 Yunoncha matndan. Ba'zi yunon qo'lyozmalarida quyidagi so'zlar keyingi misra sifatida qo'shimcha qilingan: *Jamiki yaratganing uzra Uni hukmron qilding*.

2:6-8 Muallif bu o'rinda Zabur 8:5-7 ning qadimiy yunoncha tarjimasidan foydalangan.

2:12 Zabur 21:23 ga qarang.

2:13 Ishayo 8:17-18 ga qarang.

2:16 *Ibrohimning nasli* — hamma imonlilarga ishora (Rimliklar 4:11-12, 16, Galatiyaliklar 3:7 ga qarang).

3:5 *Muso sodiq qul edi* — bu o'rinda muallif Sahroda 12:6-8 ni nazarda tutgan.

3:6 *...mahkam tutishimiz kerak* — yunoncha matndan. Ba'zi yunon qo'lyozmalarida *oxirigacha mahkam tutishimiz kerak*.

3:8 *...isyon qilgan otalaringizday...Meni sahroda sinagan o'sha ajdodlaringizday...* —

Chiqish 17:1-7 ga qarang.

3:7-11 Muallif bu o‘rinda Zabur 94:7-11 ning qadimiy yunoncha tarjimasidan foydalangan.

3:16 *O‘shanda…hammasi!* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *O‘shanda Muso Misrdan olib chiqqanlarning hammasi emas, balki Xudoning ovozini eshitganlarning ba’zilari isyon qildilar.*

4:3 Zabur 94:11 ga qarang.

4:4 Ibtido 2:2-3 ga qarang.

4:7 *bir kun* — bu o‘rindagi kun so‘zi aniq bir kunga emas, balki ma’lum bir muddatga yoki zamonga ishora qiladi.

4:7 *Xudoning bu gapini men oldin ham aytib o‘tganman…* — 3:15 ga qarang.

4:8 *Yoshua* — Yoshua 1:1-6, 21:43-45 ga qarang.

4:9 *Shabbat kuni* — yahudiylar kalendari bo‘yicha haftaning yettinchi kuni (to‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi SHABBAT KUNI iborasiga qarang). Shabbat kuniga rioya qilish imon bo‘yicha yashashning timsolidir.

5:4 *Horun* — Musoning akasi, Isroil xalqiga oliy ruhoniy bo‘lib xizmat qilgan birinchi inson.

5:5 Zabur 2:7 ga qarang.

5:6 *Maliksidiq* — Ibtido 14:17-20 da aytib o‘tilgan, Horundan oldin yashagan ruhoniy. Uning ajdodlari yoki o‘limi haqida hech qanday ma’lumot yo‘q (7:3 ga qarang).

5:6 Zabur 109:4 ga qarang.

5:7 *Masih…iltijo qilib yolvordi* — Mark 14:32-42, Yuhanno 12:27-33 ga qarang.

6:2 *poklanish marosimlari* — mazkur ibora nimaga ishora qilayotgani aniq emas. Bu o‘rinda ishlatilgan yunoncha so‘z Yangi Ahdda suvga cho‘mdirilish marosimiga ishora sifatida aslo ishlatilmagan. Iso Masihga ishongan ba’zi yahudiylar imonining ifodasi sifatida ba’zi Eski Ahd qoidalariga rioya qilgan bo‘lishlari mumkin.

6:14 Ibtido 22:17 ga qarang.

6:19 *samoviy Chodir* — bu o‘rinda Xudoning samoviy makoni Eski Ahddagi Muqaddas chodirga o‘xshatib tasvirlangan (8:5, 9:24 ga qarang). Muqaddas chodirda Eng muqaddas xonani Muqaddas xonadan bir parda ajratib turardi. Xudo O‘z xalqiga, Men Eng muqaddas xonada istiqomat qilaman, deb aytgan edi. Eng muqaddas xonaga faqatgina oliy ruhoniy bir yilda bir marta kirishi mumkin edi. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi MUQADDAS CHODIR iborasiga qarang.

6:20 *Maliksidiq* — 5:5-6 oyatlarga va 5:6 ning birinchi izohiga qarang.

7:1 *Maliksidiq* — 5:5-6 oyatlarga va 5:6 ning birinchi izohiga qarang.

7:1 *Salim* — Quddusning qadimgi nomi.

7:5 *Levi naslidan bo‘lgan ruhoniylar* — Xudo Levi qabilasidan bir oilani, ya’ni Horunning avlodini Isroil xalqining ruhoniylari qilib tanladi (Chiqish 28:1, 29:1-9 ga qarang). Ular levi ruhoniylari deb ham ataladi.

7:5 *ushr* — har qanday daromadning o‘ndan bir qismi. Isroil xalqi ushrni Ma’badga olib kelib, ruhoniylarning kundalik ro‘zg‘orini ta’minlab turardi. Levilar 27:30-33, Sahroda 18:21, Qonunlar 14:22-29, 26:12-13 ga qarang.

7:11 *…Horunning nasabidan…* — shu bobning 5–oyatiga berilgan birinchi izohga qarang.

7:11 *Maliksidiqqa o‘xshagan boshqa bir ruhoniy* — ya’ni Iso Masih (5:5-6 ga qarang).

7:16 *nasl–nasabga doir qoidalar* — Tavrot qonuniga ko‘ra, ruhoniylar Levi qabilasiga mansub Horun avlodidan bo‘lishi shart edi (shu bobning 5–oyatiga berilgan birinchi izohga qarang).

7:17 Zabur 109:4 ga qarang.

7:22 *…Xudo Iso orqali bizni a’loroq bir ahdga erishtirdi, Isoning O‘zi bunga kafildir* — 8:6 ga qarang. Muallif buni 8-10–boblarda batafsil tushuntirib beradi.

7:28 *Xudoning ont ichib bergan va’dasi* — Zabur 109:4 da bayon etilgan ontga ishora qilingan (shu bobning 20-21–oyatlariga qarang). Musoga Tavrotni bergandan ancha vaqt o‘tgandan keyin Xudo bu ontni ichgan.

8:1 *…Xudo taxtining o‘ng tomonida o‘tiribdi* — 1:3 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

8:2 *samodagi haqiqiy Chodir* — 6:19 izohiga qarang.

8:5 Chiqish 25:40 ga qarang.

8:6 *avvalgi ahd* — Musoga Sinay tog‘ida berilgan qonun–qoidalar nazarda tutilgan.

8:8-12 Yeremiyo 31:31-34 ga qarang.

9:1 *avvalgi ahd* — 8:6 izohiga qarang.

9:2 *Chodir* — lug‘atdagi MUQADDAS CHODIR iborasiga qarang.

9:4 *manna* — Isroil xalqi Misrdan chiqqandan keyin to Kan’on yurtiga kirguncha, Xudo ularga yetkazib turgan maxsus yegulik. Manna, Shabbat kunidan tashqari, har kuni kechasi yerga yog‘ilardi, odamlar saharda turib, uni yig‘ib olishardi (Chiqish 16:13-35, Yoshua 5:12 ga qarang).

9:4 *Ahd sandig‘i ichida…bor edi* — Chiqish 16:33-34, Sahroda 17:1-11, Qonunlar 10:1-5 ga qarang.

9:5 *karublar* — samoviy mavjudotlarning haykallari. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi KARUB, KARUBLAR so‘ziga qarang.

9:8 *samodagi Eng muqaddas xona* — 6:19 izohiga qarang.

9:11 *kelgan* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *bo‘lg‘usi*.

9:11 *samodagi mukammal Chodir* — 6:19 izohiga qarang.

9:13 *takalaru buqalarning qoni* — Levilar 16:1-34 ga qarang.

9:13 *kuydirilgan g‘unajinning kuli* — Sahroda 19:1-22 ga qarang.

9:15 *yangi ahd* — 8:6-13 ga qarang.

9:17 *…vasiyat o‘limdan keyingina kuchga kiradi* — shu singari, Muso davrida Xudoning O‘z xalqi bilan tuzgan ahdi ham qurbonlik keltirilgandan keyingina kuchga kirardi (Chiqish 24:3-8 ga qarang). Xuddi shuningdek, Iso Masih xochdagi o‘limi orqali abadiy

yangi ahdni kuchga kiritdi (13:20 ga va 1 Korinfliklar 11:25 ga qarang).

9:18 *...to'kilgan qon orqali...* — ya'ni qurbonlik orqali.

9:19 *issop* — bu o'simlikdan ko'pincha poklash marosimlarida odamlarga yo narsalarga suv yoki qon sepish uchun ishlatilgan (Chiqish 12:21-23, Levilar 14:1-7 va Sahroda 19:1-19 ga qarang).

9:20 Chiqish 24:8 ga qarang.

10:5-6 *Gunoh qurbonligi* — birortasi bilmay qilgan gunohi uchun Xudodan kechirim so'rab keltirgan qurbonligi. To'liqroq ma'lumotga ega bo'lish uchun lug'atdagi QURBONLIK so'zi ostida berilgan GUNOH QURBONLIGI iborasiga qarang.

10:5-7 Muallif bu o'rinda Zabur 39:7-9 ning qadimiy yunoncha tarjimasidan foydalangan.

10:9 *avvalgi ahd* — 8:6 izohiga qarang.

10:9 *yangi ahd* — 8:6-13 ga qarang.

10:12 *...Xudoning o'ng tomonida o'tirdi* — Zabur 109:1 ga qarang. O'ng tomon muruvvat va baraka o'rni deb hisoblangan.

10:16-17 Yeremiyo 31:33-34 ga qarang.

10:22 *...Masih O'z qoni bilan qalblarimizni tozalab, vijdonimizni qiynagan hamma gunohlardan pokladi* — 9:13-14 oyatlarga va 9:13 ning izohlariga qarang.

10:22 *Badanimiz ham toza suv bilan yuvildi* — ramziy ma'noni ifodalab, suvga cho'mdirish marosimiga ishora qiladi (1 Butrus 3:21, Rimliklar 6:4 ga qarang). Muallif Hizqiyol 36:25-26 ni ham nazarda tutgan bo'lishi mumkin.

10:30 *Men qasos olaman, jazosini beraman* — bu o'rinda muallif Qonunlar 32:35 ni nazarda tutgan. Qonunlar kitobida bu so'zlar Isroil xalqining dushmanlariga qarata aytilgan. Bu o'rinda esa muallif mazkur so'zlar bilan Xudoning xalqini ogohlantiryapti.

10:30 *Men O'z xalqimni hukm etaman* — bu o'rinda muallif Qonunlar 32:36 ni nazarda tutgan. O'sha oyatdagi ibroniycha fe'l *oqlash* yoki *hukm qilish* ma'nolarini bildiradi. Qonunlar kitobida bu so'zlar Isroil xalqiga taskin berish uchun aytilgan, ammo bu o'rinda muallif shu so'zlar bilan Xudoning xalqini ogohlantiryapti.

10:37 *...Muqaddas bitiklarda aytilganday...* — bu o'rinda muallif Xabaqquq 2:3-4 ni nazarda tutgan.

11:4 *Hobil* — Ibtido 4:3-10 ga qarang.

11:5 *Xano'x* — Ibtido 5:21-24 ga qarang. Sharq yozma adabiyotida Xano'x Idris payg'ambar deb e'tirof etilgan.

11:7 *Nuh* — Ibtido 6:9-22 ga qarang.

11:8 *Ibrohim* — Ibtido 12:1-8 ga qarang.

11:11 *O'zi qarib ketgan...Ibrohim imoni tufayli farzand ko'rdi* — yoki *Bepusht va qari bo'lsa ham, Sora imoni tufayli farzand ko'rdi*. Ibtido 18:10-14, 21:1-3 ga qarang.

11:17-18 *Xudo Ibrohimni sinovdan o'tkazayotganda...* — Ibtido 22:1-14 ga qarang.

11:17-18 Ibtido 21:12 ga qarang.

11:20 *Is'hoq* — Ibtido 27:1-40 ga qarang.

11:21 *Yoqub* — Ibtido 48:1-20 ga qarang.

11:21 *U...Xudoga sajda qildi* — Ibtido 47:29-31 ga qarang.

11:22 *Yusuf* — Ibtido 50:24-25 ga qarang.

11:23 *Musoning ota–onasi* — Chiqish 2:1-2 ga qarang.

11:24 *Muso* — Chiqish 2:10-15 ga qarang.

11:28 *Fisih* — Chiqish 12:21-28 ga qarang.

11:28 *kesakilari* — eshik o'rnatilgan chorcho'plar.

11:29 *Qizil dengiz* — Chiqish 14:5-31 ga qarang.

11:30 *Yerixo shahri* — Yoshua 6:12-21 ga qarang.

11:31 *Rahoba* — Yoshua 2:1-21, 6:22-24 ga qarang.

11:32 *Gido'n, Baraq, Shimsho'n, Yiftox, Dovud, Shomuil* — Gido'n (Hakamlar 6:1-8:35 ga qarang), Baraq (Hakamlar 4:1-24 ga qarang), Shimsho'n (Hakamlar 13:1-16:31 ga qarang), Yiftox (Hakamlar 11:1-12:7 ga qarang), Dovud (1 Shohlar 16:1 dan 3 Shohlar 2:12 gacha qarang), Shomuil (1 Shohlar 1-4, 7-13, 15-16, 19–boblarga qarang).

11:33 *Sherlar* — Hakamlar 14:6, 1 Shohlar 17:34-35, Doniyor 6:13-23 ga qarang.

11:34 *olov* — Doniyor 3:13-27 ga qarang.

11:35 *Ayollar* — 3 Shohlar 17:17-24, 4 Shohlar 4:17-37 ga qarang.

11:37 *Ularni toshbo'ron qildilar...* — 2 Solnomalar 24:20-22, Matto 23:37 ga qarang. An'anaga ko'ra Yeremiyo payg'ambar Misrda toshbo'ron qilib, o'ldirilgan.

11:37 *...tanalarini arralab ikkiga bo'ldilar...* — an'anaga ko'ra Ishayo payg'ambar Yahudo shohi Manashe tomonidan ana shunday o'lim jazosiga tortilgan.

12:2 *sharmandali o'lim* — Iso Masihning yalang'och holda xochda o'ldirilganiga ishora. Odatda jinoyatchilar shu tarzda o'ldirilardi (Filippiliklar 2:7-8 ga qarang). To'liqroq ma'lumotga ega bo'lish uchun lug'atdagi XOCH so'ziga qarang. Yahudiylar yog'ochga osilgan odamni Xudo la'natlagan deb hisoblashardi (Qonunlar 21:23, Galatiyaliklar 3:13 ga qarang).

12:2 *...Xudo taxtining o'ng tomonida o'tiribdi* — 1:3 ga va o'sha oyatning izohiga qarang.

12:5-6 Muallif bu o'rinda Hikmatlar 3:11-12 ning qadimiy yunoncha tarjimasidan foydalangan.

12:13 *...to'g'ri yo'lni tanlab yuring* — Hikmatlar 4:26 ga qarang.

12:16 *Esov* — Ibtido 25:29-34, 27:30-40 ga qarang.

12:16 *axloqi buzuq* — Esov o'zining to'ng'ichlik huquqini taom evaziga sotganiga ishora bo'lishi mumkin. Bu qilmishi bilan Esov o'zini bashariy hirslarini qondirish orqali obro'sini to'kkan fohishaboz erkakka teng qilib qo'ygan. *Axloqi buzuq* iborasi Esovning ota–onasini ranjitib, ajnabiy ayollarga uylanganiga ham ishora qilayotgan bo'lishi mumkin (Ibtido 26:34-35 ga qarang).

12:17 *...voz kechgan merosini qaytarib olishga aslo imkon yo'q edi* — Esovning hayotida bo'lib o'tgan voqea va uning xulq–atvori o'quvchilar uchun kuchli bir ogohlantirish

bo‘lib xizmat qiladi. Agar o‘quvchilar ham uzoqni ko‘zlamasdan qaror chiqarsalar, Esovga o‘xshab ular ham bir umr armonu afsuslarga to‘la bo‘lishlari mumkin (4:1, 6:4-8, 10:26-31 ga qarang).

12:18 *Sinay tog‘i* — Chiqish 19:10-25, 20:18-21 ga qarang.

12:21 *Musoning o‘zi…degandi* — bu o‘rinda muallif Qonunlar 9:19 ni nazarda tutgan.

12:22 *Sion tog‘i* — Quddusdagi Ma’bad qurilgan tepalik Sion tog‘i deb atalgan. Eski Ahddagi she’riy parchalarda va payg‘ambarlar bitiklarida Sion so‘zi ko‘pincha Quddus shahriga yoki Xudoning xalqiga nisbatan ishlatilgan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi SION so‘ziga qarang. Bu o‘rinda Xudoning samoviy makoniga ishora qilingan.

12:24 *yangi ahd* — 8:6-13 ga qarang.

12:24 *Hobilning qoni* — Ibtido 4:8-10 ga qarang.

12:24 *Uning qoni…gunohlarimizni yuvish uchun to‘kilgan* — 9:11-15, 10:19-22 ga qarang.

12:26 *…yerni larzaga solgan edi* — Chiqish 19:18-20, Zabur 67:8-9 ga qarang.

12:26 *…U shunday demoqda…* — bu o‘rinda muallif Xaggey 2:6 ni nazarda tutgan.

12:29 *…Xudoyimiz yamlamay yutadigan olovdir* — Qonunlar 4:24 ga qarang.

13:2 *ba’zi odamlar* — misol uchun, Ibrohim (Ibtido 18:1-33 ga qarang), Lut (Ibtido 19:1-17 ga qarang), Gido‘n (Hakamlar 6:11-22 ga qarang), Monuvax (Hakamlar 13:2-21 ga qarang) nazarda tutilgan.

13:5 *Xudo…deb aytgan* — bu o‘rinda muallif Qonunlar 31:6, Yoshua 1:5 ni nazarda tutgan.

13:6 Muallif bu o‘rinda Zabur 117:6 ning qadimiy yunoncha tarjimasidan foydalangan.

13:10 *…haqiqiy qurbongoh…Yerdagi qurbongoh…* — majoziy ma’noda yangi ahdga va avvalgi ahdga (ya’ni Sinay tog‘ida Musoga berilgan qonun–qoidalarga) ishora qilingan (8:6-9:15 ga qarang).

13:11 *Ilgarilari oliy ruhoniy…kuydirardi* — bu oyatda muallif Poklanish kunida oliy ruhoniy qiladigan ishlarni nazarda tutgan (Levilar 16:1-34 ga qarang).

13:12 *shahar* — ya’ni Quddus shahri.

13:20 *Iso O‘z qoni bilan abadiy ahdni muhrlagani uchun…* — 9:15-18 oyatlarga va 9:18 izohiga qarang.

13:20 *Cho‘pon* — Yuhanno 10:11-16 ga qarang.

13:23 *Timo‘tiy* — ilk jamoatning yetakchisi bo‘lib, havoriy Pavlusning hamkori (Havoriylar 16:1-3, Filippiliklar 2:20-22 ga qarang).

13:25 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida quyidagi so‘z oyatga qo‘shimcha qilingan: *omin*.

YUHANNOGA
AYON QILINGAN
VAHIY

Kirish

Mazkur kitobda Isoning Yuhannoga koʻrsatgan vahiysi bayon etilgan. Bu vahiy oxirzamon haqidadir. Yuhanno vahiy koʻrganda, Egey dengizidagi Patmos orolida surgunda edi. Patmos oroli hozirgi Turkiyadagi Efes shahridan qariyb 100 kilometr janubi–gʻarbda joylashgan.

Vahiy kitobining asosiy mohiyati Xudoning Iso Masih haqidagi xabarini ayon qilish va qattiq quvgʻin ostida qolgan masihiylarga umid baxshida etishdan iborat. Yuhanno quvgʻinga duchor boʻlgan birodarlarni imonda mahkam turishga undaydi. Ularning eʼtiborini oxiratga qaratadi. Oxiratda Xudo shayton ustidan gʻalaba qozonadi. Iso Masih osmondan tushib kelib, barcha betavfiqlarni hukm qiladi va Oʻzining abadiy shohligini oʻrnatadi. Shunda imonda oxirigacha sobit turgan birodarlar najot topishadi va boqiy baxtiyorlikdan bahramand boʻlishadi. Rim imperiyasining vahshiy zulmi ostida qolgan masihiylar bu kitobni oʻqib, Xudoga sodiq qolishardi.

Ushbu kitob obrazlarga va gʻoyalarga nihoyatda boydir. Ular yordamida muallif Xudoning beqiyos qudrati va oxiratdagi odilona hukmini tasvirlaydi. Misol uchun, samodagi taxt, muhrlangan oʻrama qogʻoz va Qoʻzi haqidagi vahiylar Xudoning va Iso Masihning cheksiz hokimiyatini aks ettiradi. Yetti muhr, yetti karnay va gʻazab kosalari haqidagi vahiylar esa qiyomatda Xudoning hukmini va yer yuziga sochadigan qahrini tasvirlaydi. Yetti raqami kitobda bir necha bor ishlatilgan boʻlib, barkamollik maʼnosini ifodalaydi.

Kitobni mazmun jihatdan uch qismga boʻlsa boʻladi: 1) dunyoda yovuz kuchlar mavjud. Masihiylar imon yoʻlida azob chekishlari va hatto jonidan mahrum boʻlishlari mumkin. 2) Iso Masih Rabbiydir. U Xudoga qarshi boʻlgan hamma odamlarni va kuchlarni yengadi. 3) Xudoga oxirigacha sodiq qolgan odamlar uchun Iso Masih mukofotlar tayyorlab qoʻygan. Ayniqsa, Xudoni oʻz jonidan ham ortiq koʻrganlarni U yuksak darajada taqdirlaydi.

1–BOB

Muqaddima va duoyi salom

1 Mazkur kitobda Iso Masihning vahiysi bayon etilgan. Yaqin orada yuz beradigan hodisalarni Xudo Oʻz qullariga ayon qilish uchun bu vahiyni Iso Masihga berdi. Iso Masih quli Yuhannoning oldiga Oʻz farishtasini yuborib, ushbu vahiyni koʻrsatdi. 2 Yuhanno Xudoning kalomi va Iso Masihning shahodati toʻgʻrisida nimalarni koʻrgan boʻlsa, hammasi haqida guvohlik bermoqda. 3 Ushbu bashorat soʻzlarini ovoz chiqarib oʻqiyotgan odam baxtlidir. Uni tinglab*, kitobda yozilganlarga amal qiluvchilar baxtlidir. Axir, bu hodisalar hademay yuz beradi.

4-5 Asiya viloyatidagi imonlilarning yettita jamoatiga* Yuhannodan salom! Azaldan bor boʻlgan, hozir ham bor, kelajakda ham bor boʻladigan Xudodan, Uning taxti oldida

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

turgan yetti ruhdan, shuningdek, o‘liklar ichidan birinchi bo‘lib tirilgan, yer yuzi shohlarining Hukmdori bo‘lgan ishonchli shohid — Iso Masihdan sizlarga inoyat va tinchlik bo‘lsin.

Iso Masih bizni sevadi. U O‘z qonini to‘kib, bizni gunohlarimizdan xalos etdi. 6 U bizdan Shohlik yaratdi, bizni Otasi* Xudoga xizmat qiladigan ruhoniylar qilib tayinladi. Qudrat Sohibi bo‘lgan Masihga abadulabad shon–sharaflar bo‘lsin! Omin.

7 Ana, U bulutlarda kelyapti!
Har bir ko‘z Uni ko‘radi,
Hatto Unga nayza sanchganlar ham Unga ko‘z tikadi.
Dunyoning jamiki qabilalari Uni deb yig‘laydi.
Darhaqiqat, hammasi aytilganday bo‘ladi! Omin.

8 “Men Ibtido va Intihodirman*, — deb aytmoqda Egamiz Xudo. — Men oldin bor bo‘lgan, hozir ham bor, kelajakda ham bor bo‘ladigan Qodir Xudodirman.”

Yuhanno vahiyda Masihni ko‘radi

9 Men birodaringiz Yuhannoman. Isoning azoblari, Uning Shohligi va sabr–toqatini baham ko‘rgan sherigingizman. Men Xudoning kalomini va’z qilib, Iso haqida guvohlik berganim uchun Patmos oroliga* surgun qilinganman. 10 Yakshanba kuni* Muqaddas Ruh meni qamrab oldi. Men orqamdan karnay sadosiga o‘xshash kuchli bir ovozni eshitdim. Ovoz shunday dedi*: 11 “Ko‘rganlaringni kitobga yozib bor. So‘ng uni Efes, Smirna*, Pergamon, Tiyatira, Sardis, Filadelfiya va Laodikiya shaharlaridagi imonlilarning yettita jamoatiga yubor.”

12 Menga gapirayotgan Kimsani ko‘rish uchun o‘girildim. Shunda yettita oltin chiroqpoyani ko‘rdim. 13 Chiroqpoyalar orasida inson qiyofasidagi bir Zot* turgan edi. Uning ustida uzun, to‘pig‘igacha tushgan rido bor edi, ko‘ksiga oltin tasma bog‘langan edi. 14 Sochi momiqday oq, qorday oppoq edi. Ko‘zlari esa olovday chaqnardi. 15 Uning oyoqlari o‘choqda qizdirilgan bronzaday yarqirar, ovozi guvullagan dengiz tovushiga o‘xshardi. 16 O‘ng qo‘lida yettita yulduz bor edi, og‘zidan o‘tkir dudama qilich chiqib turardi. Uning yuzi kun qiziganda balqiydigan quyoshday porlardi.

17 Uni ko‘rishim bilanoq, oyoqlari ostiga o‘likday yiqildim. U esa o‘ng qo‘lini ustimga qo‘yib, shunday dedi: “Qo‘rqma! Men Birinchi va Oxirgiman. 18 Barhayotman. O‘lgan edim va mana, abadulabad tirikman. O‘limning va o‘liklar diyorining* kalitlari Mendadir. 19 Shunday ekan, sen oldin ko‘rganlaringni, hozir ko‘rayotganlaringni va bundan keyin ko‘radiganlaringning hammasini yozib bor. 20 Sen o‘ng qo‘limda ko‘rgan yettita yulduz va yettita oltin chiroqpoyaning siriga kelsak, yetti yulduz — yetti jamoatning farishtalarini*, yetti chiroqpoya esa yetti jamoatni bildiradi.”

2–BOB

Efes shahridagi imonlilar jamoatiga

1 “Efesdagi imonlilar jamoatining farishtasiga* yoz:

Yetti yulduzni o‘ng qo‘lida tutguvchi, yettita oltin chiroqpoya orasida yuruvchi Zot shunday demoqda: 2 sening ishlaringni, mehnatingni, bardoshingni bilaman,

badkirdorlarga toqat qilmasligingni ham bilaman. Havoriy bo‘lmagan holda o‘zlarini havoriy deb aytganlarni sen sinading, ularning yolg‘onini fosh qilding. 3 Ha, bardoshlisan. Mening nomim uchun ko‘p qiyinchiliklarni boshdan kechirib, holdan toymading. 4 Biroq senga bir e’tirozim bor: sen Menga bo‘lgan ilk sevgingni unutding. 5 Eslagin axir, ilk sevgi bilan yashaganingda qanchalar yuksakda eding! Endi esa tavba qil, avvalgi ishlaringga qayt. Tavba qilmasang oldingga borib, chiroqpoyangni o‘z joyidan olib tashlayman. 6 Ha, senda yana bir yaxshi fazilat bor: sen nikolaschilarning* ishlaridan nafratlanasan. Men ham ulardan nafratlanaman.

7 Kimning eshitar qulog‘i bo‘lsa, Ruhning jamoatlarga aytayotgan gaplarini eshitsin. G‘olib kelganlarga Xudoning jannatidagi hayot daraxti* mevasidan yeyishni nasib etaman.”

Smirna shahridagi imonlilar jamoatiga

8 “Smirnadagi* imonlilar jamoatining farishtasiga yoz:

O‘lib tirilgan, Birinchi va Oxirgi bo‘lgan Zot shunday demoqda: 9 chekkan azoblaringni*, kambag‘alligingni bilaman. Aslida esa boysan! O‘zini Xudoning xalqi deb ataganlar seni qanchalar haqoratlaganini ham bilaman. Ular Xudoning xalqi emas*, balki shayton to‘dasidir. 10 Boshingga tushadigan azob–uqubatlardan qo‘rqma! Bilginki, iblis sizlarni sinash uchun orangizdan ba’zilarni zindonga tashlaydi, o‘n kun* davomida azob chekasizlar. O‘lim xavfi ostida bo‘lganingda ham sodiq qol, shunda Men senga hayot tojini beraman.

11 Kimning eshitar qulog‘i bo‘lsa, Ruhning jamoatlarga aytayotgan gaplarini eshitsin. G‘olib kelganlar ikkinchi o‘limdan* hech qanday zarar ko‘rmaydilar.”

Pergamon shahridagi imonlilar jamoatiga

12 “Pergamondagi imonlilar jamoatining farishtasiga yoz:

O‘tkir dudama qilich Sohibi shunday demoqda: 13 qayerda yashayotganingni* bilaman. Shahringda shaytonning taxti joylashgan*. Shunday bo‘lsa–da, sen Mening nomimga qattiq bog‘landing. Shayton yashayotgan o‘sha shahringda sodiq shohidim Antipas* o‘ldirilganda ham, sen Menga bo‘lgan imoningdan qaytmading. 14 Lekin senga bir oz e’tirozim bor: orangizda Balom ta’limotiga rioya qiluvchilar bor. Balom* Isroil xalqini yo‘ldan ozdirish yo‘lini Boloqqa o‘rgatgandi. Boloq esa Isroil xalqini butlarga keltirilgan qurbonlik go‘shtini yeyishga va fahsh–zinoga undagandi. 15 Shuningdek, orangizda nikolaschilar* ta’limotiga ergashuvchilar ham bor. 16 Endi tavba qil! Aks holda, Men zudlik bilan oldingga borib, og‘zimdagi qilich bilan o‘shalarga qarshi jang qilaman.

17 Kimning eshitar qulog‘i bo‘lsa, Ruhning jamoatlarga aytayotgan gaplarini eshitsin. G‘olibga Men pinhon saqlangan mannani* beraman. Unga oq toshni* ham beraman. Bu toshning ustiga yangi bir ism yozilgan, toshni olgan kishidan boshqa hech kim u ismni bilmaydi.”

Tiyatira shahridagi imonlilar jamoatiga

18 “Tiyatiradagi imonlilar jamoatining farishtasiga yoz:

Ko‘zlari otash alangasiday chaqnoq, oyoqlari qizdirilgan bronzaday yarqiroq

Xudoning O‘g‘li shunday demoqda: 19 sening ishlaring, sevging, imoning, xizmating va
bardoshingni bilaman. Hozirda oldingidan ham ko‘proq ish qilayotganingni bilaman.
20 Lekin senga bir e’tirozim bor: sen Izabel* degan bo‘lmag‘ur ayolga toqat qilib
yuribsan. U o‘zini payg‘ambar deb, ta’limoti bilan qullarimni yo‘ldan ozdiryapti. Ularni
fahsh–zino qilishga va butlarga keltirilgan qurbonlik go‘shtini yeyishga undayapti.
21 Fahsh–zinodan tavba qilishi uchun unga muhlat berdim, ammo u tavba qilishdan bosh
tortyapti. 22 Shunday ekan, Men uni xasta qilib, to‘shakka yotqizib qo‘yaman. U bilan
birga fahsh–zino qilganlarni ham, bordi–yu, uning yo‘lidan qaytmasalar, qattiq azob–
uqubatlarga duchor qilaman. 23 Uning izdoshlarini* o‘ldiraman. Onglarni va yuraklarni
bilguvchi Men ekanligimni shunda hamma jamoatlar bilib oladilar. Men orangizdagi har
bir kishini o‘z qilmishiga yarasha jazolayman.
24 Tiyatiradagi ba’zilaringiz Izabelning bu ta’limotiga ergashmadingiz. Sizlar
«shaytonning sirlari»* deb atalgan narsalardan bexabarsizlar. Sizlarga shundan boshqa
hech narsa yuklamayman: 25 faqat Men kelgunimga qadar, imoningizda qattiq turinglar,
deyman. 26 G‘olib kelganlarga va oxirigacha Mening irodamni bajarganlarga xalqlar
ustidan hokimiyat beraman. 27 Ular xalqlarni temir xivchin ila boshqarishadi. Sopol
ko‘zani sindirganday xalqlarni parchalashadi*. Otam Xudo Menga ato qilgan bu
hokimiyat ularda bo‘ladi. 28 Men ularga tong yulduzini* ham beraman.
29 Kimning eshitar qulog‘i bo‘lsa, Ruhning jamoatlarga aytayotgan gaplarini eshitsin.”

3–BOB

Sardis shahridagi imonlilar jamoatiga

1 “Sardisdagi imonlilar jamoatining farishtasiga* yoz:

Xudoga xizmat qiladigan yetti ruhni Boshqaruvchi, qo‘lida yetti yulduzni Tutguvchi
shunday demoqda: sening ishlaringni bilaman. Seni tirik deyishadi, ammo o‘liksan.
2 Sening ishlaring Xudoyim nazarida tugal emasligini bildim. Uyg‘on! Jamoating nobud
bo‘lmoqda. Imonini saqlab qolganlarga* qo‘shilib, jamoatingni mustahkamla. 3 Nimani
eshitib o‘rgangan bo‘lsang eslagin. O‘shalarga rioya qilgin. Gunohlaringdan tavba etgin.
Agar uyg‘onmasang, Men ustingga o‘g‘riday bostirib kelaman. Sen esa qaysi soatda
kelishimni bilmaysan. 4 Biroq Sardisda o‘z kiyimlarini bulg‘amagan bir necha
odamlaring qolgan. Ular Men bilan birga oq kiyimda yuradilar, ular bunga loyiqdirlar.
5 G‘olib kelganlar ular singari, shunday oq kiyim kiyadilar. Men ularning nomlarini hayot
kitobidan* o‘chirmayman, Otam Xudo va Uning farishtalari oldida nomlarini tan olaman.
6 Kimning eshitar qulog‘i bo‘lsa, Ruhning jamoatlarga aytayotgan gaplarini eshitsin.”

Filadelfiya shahridagi imonlilar jamoatiga

7 “Filadelfiyadagi imonlilar jamoatining farishtasiga yoz:

Shoh Dovudning kaliti* muqaddas va haq Zotdadir. U eshikni ochganda, uni hech
kim bekita olmaydi. U bekitganda, hech kim ocholmaydi. O‘sha Zot shunday demoqda:
8 sening ishlaringni bilaman. Mana, oldingda bir eshik ochdim, uni hech kim bekita
olmaydi. Kuching kamligini Men bilaman. Shunga qaramay, sen so‘zimga rioya qilding,
Mendan tonmading. 9 Shayton to‘dasidan bo‘lganlarni nima qilishimni o‘zing ko‘rasan.
Ular o‘zlarini Xudoning xalqi deb ataydilar, ammo gaplari yolg‘on, ular Xudoning xalqi

emaslar*. Men ularni shunday ko‘yga solamanki, kelib sening oyog‘ingga yiqiladilar. Men seni qanchalik sevganimni bilib oladilar. 10 Sen Mening sabrli bo‘lish haqidagi amrimga itoat etding. Shunday ekan, yer yuzida yashovchilarni sinash uchun yuboriladigan kulfat vaqtidan Men seni asrayman. 11 Men tezda kelaman. Imoningda mahkam tur, toki hech kim tojingni tortib olmasin. 12 G‘olib kelganlarni Men Xudoyimning Ma’badida ustun qilaman. Shunda ular zinhor Ma’badni tark etmaydilar. Ularning peshanalariga Men Xudoyimning nomini va Xudoyimga qarashli shaharning nomini yozaman. Bu shahar — Xudoyim samodan yuboradigan yangi Quddusdir. G‘olibning peshanasiga Men O‘zimning yangi nomimni ham yozaman.

13 Kimning eshitar qulog‘i bo‘lsa, Ruhning jamoatlarga aytayotgan gaplarini eshitsin.”

Laodikiya shahridagi imonlilar jamoatiga

14 “Laodikiyadagi imonlilar jamoatining farishtasiga yoz:

Ishonchli va haq Shohid, Xudo yaratgan borliqning Asoschisi*, Omin* deb nom olgan Zot shunday demoqda: 15 sening ishlaringni bilaman, sen na sovuq va na issiqsan*. Eh, qaniydi, yo sovuq, yo issiq bo‘lsang! 16 Sen issiq ham, sovuq ham emas, balki iliq bo‘lganing uchun Men seni qusib yuboraman. 17 Sen: «Boyman, o‘zimga to‘qman, hech narsadan kam–ko‘stim yo‘q», — deysan. Aslida esa ayanchli, achinarli ahvolda ekaningni, qashshoq, ko‘r va yalang‘och ekaningni bilmaysan! 18 Senga maslahat beraman: boyishing uchun Mendan olovda toblangan oltinni sotib ol. Sharmandali yalang‘ochligingni yopish uchun egningga oq kiyim, ko‘rishing uchun ko‘zlaringga surtadigan malhamni Mendan sotib ol*. 19 Men kimni sevsam, aybini ko‘rsataman, tarbiyalayman. Shunday ekan, shijoatli bo‘l, gunohlaring uchun tavba qil.

20 Mana, Men eshik oldida turib, taqillatyapman. Kim ovozimni eshitib eshikni ochsa, Men o‘shaning oldiga kiraman. Men u bilan va u Men bilan ovqatni baham ko‘ramiz. 21 G‘olib kelganlarni Men yonimda, taxtimda o‘tirishga haqli qilaman. Zotan, Men ham g‘olib kelganimda Otam Xudo bilan birga Uning taxtida o‘tirdim.

22 Kimning eshitar qulog‘i bo‘lsa, Ruhning jamoatlarga aytayotgan gaplarini eshitsin.”

4–BOB

Samodagi sajda

1 Shundan keyin men osmonda lang ochiq bir eshikni ko‘rdim. Ilgari menga gapirgan karnay sadosiga o‘xshash o‘sha ovoz yana eshitildi. U shunday dedi: “Bu yoqqa chiq, bundan keyin nima yuz berishini senga ko‘rsataman.”

2 Shu payt Muqaddas Ruh meni qamrab oldi. Men samoda turgan bir taxtni ko‘rdim, unda bir Zot o‘tirar edi. 3 O‘tirgan Zotning qiyofasi qimmatbaho yashma va la’l toshlariday yarqirardi. Taxt atrofida zumrad tusidagi kamalak jilvalanardi. 4 Taxtning tevaragida yana yigirma to‘rtta taxt turardi. Bu taxtlarda oq kiyim kiygan, boshlarida oltin tojlari bo‘lgan yigirma to‘rt nafar oqsoqol o‘tirar edi. 5 Taxtdan chaqmoq chaqardi, momaqaldiroqning gulduros sadosi kelardi. Taxt oldida Xudoning yetti ruhi bo‘lgan yettita mash’ala yonib turardi. 6 Taxtning oldida oyna singari dengizga o‘xshash, billurday tiniq bir narsa bor edi.

Taxtning atrofida to‘rtta jonli mavjudot turar edi, ularning oldi va orqasi ko‘zlar bilan qoplangan edi. 7 Birinchi mavjudot sherga, ikkinchisi buqaga o‘xshar edi, uchinchi

mavjudotning yuzi odamning yuziga, to‘rtinchisi esa uchayotgan burgutga o‘xshar edi.
8 Bu to‘rtta mavjudotning har birida oltitadan qanot bor edi. Ularning hamma yog‘i
ko‘zlar bilan qoplangan edi, hatto qanotlarining tagida ham ko‘zlari bor edi. Ular
kechayu kunduz tinmay shunday so‘zlarni takrorlar edilar:

“Muqaddasdir, muqaddasdir,
Muqaddasdir Qodir Xudo — Egamiz.
U bor bo‘lgan, hozir ham bor,
Kelajakda ham bor bo‘lar!”

9 Mavjudotlar taxtda O‘tirganni, to abad barhayot Zotni ulug‘lashardi, izzat–ikrom
ko‘rsatib, shukronalar aytishardi. 10 Shunda yigirma to‘rt nafar oqsoqol taxtdagi to abad
barhayot Zot oldida yerga muk tushib, sajda qilishardi. Tojlarini taxt oldiga qo‘yib,
shunday deyishardi:

11 “Yo Egamiz, yo Xudoyimiz!
Sen qudratlisan!
Ulug‘vorligu izzatga Sen loyiqsan!
Zero, butun borliqni Sen yaratgansan,
Hamma narsa Sening irodang ila vujudga keldi, yaratildi.”

5–BOB

Muhrlangan o‘rama qog‘oz va Qo‘zi

1 Men taxtda o‘tirgan Zotning o‘ng qo‘lida bir o‘rama qog‘ozni* ko‘rdim. O‘ramning
oldi va orqa tomonlarida yozuvlari bor bo‘lib, u yettita muhr bilan muhrlangan edi.
2 So‘ng men kuchli bir farishtani ko‘rdim. U baland ovozda: “Muhrlarni yechishga,
o‘ramni ochishga kim loyiq?” deb so‘radi. 3 Biroq na osmonda, na yer yuzida, na yer
ostidagi olamda o‘ramni ocha oladigan yoki ichiga nazar sola oladigan biron kimsa bor
edi. 4 Men achchiq–achchiq yig‘lay boshladim, chunki o‘ramni ochishga, hatto uning
ichiga nazar solishga loyiq biron kimsa topilmagandi. 5 Shunda oqsoqollardan biri
menga dedi: “Yig‘lama! Ana qara, Yahudo qabilasidan bo‘lgan Sher — Dovud urug‘idan
chiqqan Zot* g‘alaba qozondi. U o‘ramning yettita muhrini yechishga va o‘ramni
ochishga qodirdir.”
6 Shunda men taxtning oldida, to‘rtta jonli mavjudot va oqsoqollar qurshovida turgan
bir Qo‘zini ko‘rdim. U go‘yo bo‘g‘izlanganday edi. Qo‘zining yetti shoxi va yetti ko‘zi bor
edi. Bular Xudo butun yer yuziga yuborgan yettita ruhdir. 7 Qo‘zi kelib, taxtda o‘tirgan
Zotning o‘ng qo‘lidan o‘ramni oldi. 8 U o‘ramni olganda, to‘rtta mavjudot va yigirma to‘rt
oqsoqol Qo‘zining oldida muk tushishdi. Har birining qo‘lida bir arfa va xushbo‘y
tutatqilarga to‘la oltin kosalar bor edi. Xushbo‘y tutatqilar — Xudo azizlarining duoyu
ibodatlari demakdir. 9 Ular quyidagicha yangi qo‘shiq aytishar edi:

“Sen o‘ramni olishga,
Uning muhrlarini yechishga loyiqsan!
Chunki Sen bo‘g‘izlangan eding,
O‘z qoning evaziga har bir qabila, millat, elatu xalqdan

Xudo uchun odamlarni qutqarib olding.
10 Ulardan Shohlik yaratding,
Ularni Xudoyimizga xizmat qiladigan
Ruhoniylar qilib tayinlading.
Ular yer yuzida hukm suradilar.”

11 Keyin men taxtning, mavjudotlar va oqsoqollarning atrofida koʻp farishtalarni koʻrdim, ularning ovozlarini eshitdim. Ularning sanogʻiga yetib boʻlmas, ming–minglab, oʻn minglab edilar. 12 Ular baland ovozda shunday derdilar:

“Boʻgʻizlangan Qoʻzi hamdlarga loyiqdir!
Kuchu davlat, donoligu qudrat Sohibiga
Shon–sharaflar boʻlsin!”

13 Shunda men yeru osmondagi, yer ostidagi, dengizdagi jamiki jonzotlarning ovozlarini eshitdim. Ularning hammasi shunday deb kuylayotgan edilar:

“Taxtda oʻtirgan Zotga va Qoʻziga
Abadulabad hamdlar boʻlsin!
Bu qudrat Sohiblariga
Abadulabad shon–sharaflar boʻlsin!”

14 Toʻrtta mavjudot: “Omin!” — dedi. Oqsoqollar esa muk tushib, sajda qildilar*.

6–BOB

Muhrlar

1 Keyin men Qoʻzining yetti muhrdan birini yechganini koʻrdim. Oʻsha paytda toʻrtta jonli mavjudotdan biri momaqaldiroqqa oʻxshash ovoz bilan: “Kel!” — deb aytganini eshitdim. 2 Shunda men bir oq otni koʻrdim. Ot ustida kamoni bor suvori oʻtirardi. Unga bir toj berildi. U bosqinchi boʻlib, dushmanlarini bosib olish uchun yoʻlga chiqdi.

3 Qoʻzi ikkinchi muhrni yechganda, men ikkinchi mavjudotning: “Kel!” — deb aytganini eshitdim. 4 Shu payt boshqa bir ot chiqib keldi. U qip–qizil rangda edi. Xalqlar bir–biriga qirgʻin keltirsin deb, bu ot ustidagi suvoriga dunyoni tinchlikdan mahrum qilish qudrati berilgandi. Unga katta qilich ham berildi.

5 Qoʻzi uchinchi muhrni yechganda, men uchinchi mavjudotning: “Kel!” — deb aytganini eshitdim. Shunda men qora otni koʻrdim. Bu ot ustidagi suvorining qoʻlida tarozi bor edi. 6 Men toʻrtta mavjudotning orasidan chiqqan ovozga oʻxshash bir sadoni eshitdim. Oʻsha ovoz dedi: “Odamlar bir kunlik ish haqiga* bor–yoʻgʻi bir kosa bugʻdoy yoki uch kosa* arpa sotib oladigan boʻlsin. Ammo zaytun bogʻlari va uzumzorlarga zarar yetkazma!”

7 Qoʻzi toʻrtinchi muhrni yechganda, men toʻrtinchi mavjudotning: “Kel!” deb aytganini eshitdim. 8 Shunda men koʻkimtir rangdagi bir otni koʻrdim. Ot mingan suvorining nomi Oʻlim edi. Uning ketidan Qabr ergashib kelayotgan edi. Ularga dunyoning toʻrtdan bir qismi ustidan hokimiyat berilgandi. Ular yerdagi odamlarni qilich, qahatchilik, oʻlat va yovvoyi hayvonlar orqali oʻldirishlari mumkin edi.

9 Qo‘zi beshinchi muhrni yechganda, men qatl qilingan odamlarning jonlarini
qurbongoh ostida ko‘rdim. Ular Xudoning kalomi va bergan shahodatlariga sodiq
qolganlari uchun o‘ldirilgan edilar. 10 Ular qattiq faryod qilib, shunday derdilar: “Yo
Egamiz, Sen muqaddas va haqdirsan. Sen qachon dunyoda yashayotganlarni hukm
etasan? Qachon ulardan o‘limimiz uchun qasos olasan?” 11 Bu jonlarning har biriga oq
libos berildi. Ularga: “Qisqa bir muddat dam olib turinglar”, deb aytildi. Boshqa
xizmatchi birodarlar ham ular singari o‘ldirilib, o‘ldirilganlarning soni belgilangan
miqdorga yetguncha ular kutib turishlari kerak edi.
12 Qo‘zi oltinchi muhrni yechayotganini men kuzatib turdim. Shunda qattiq zilzila
ro‘y berdi. Quyosh qora junday tim qora bo‘lib qoldi, to‘lin oy esa qonday qip–qizil tusga
kirdi. 13 Osmondagi yulduzlar yerga quladi. Ha, kuchli shamol daraxtni silkitib anjirni
to‘kkanday ular yerga to‘kildi. 14 Osmon qog‘ozday o‘ralib, yo‘q bo‘lib ketdi. Har bir tog‘
va orol joyidan siljib ketdi. 15 Dunyoning shohlari, aslzodalariyu lashkarboshilari
g‘orlarga va tog‘larning qoyalari orasiga yashirindilar. Ular bilan birga boylaru kuchlilar,
qulu erkin odamlar yashirindilar. 16 Ular tog‘u qoyalarga shunday deb yolvorar edilar:
“Ustimizga qulang, taxtda o‘tirgan Zotning nazaridan va Qo‘zining g‘azabidan bizni
yashiring! 17 Axir, Ular g‘azabini sochadigan qo‘rqinchli kun keldi! Bu kunga kim
bardosh bera olardi?!”

7–BOB

Muhrlangan 144.000 kishi

1 Shundan keyin men yer yuzining to‘rt burchagida turgan to‘rt nafar farishtani
ko‘rdim. Ular to‘rt shamolni tutib turar edilar. Shamolning esishiga, yerga, dengizga,
biron daraxtga tegishiga yo‘l qo‘ymas edilar. 2 So‘ngra men sharqdan kelayotgan boshqa
bir farishtani ko‘rdim. U barhayot Xudoning muhrini olib kelayotgan edi. Yeru dengizga
zarar yetkazish qudrati berilgan to‘rtta farishtaga u baland ovozda shunday xitob qildi:
3 “Yerga, dengizga va daraxtlarga zarar yetkazmay turinglar. Xudoyimizning qullari
peshanalariga biz muhr bosib olaylik!”
4 Men muhr bosilgan kishilarning sonini eshitdim. Isroil qabilalarining barchasidan
144.000 kishiga muhr bosilgan edi:

5 Yahudo qabilasidan 12.000 kishi,
Ruben qabilasidan 12.000,
Gad qabilasidan 12.000,
6 Osher qabilasidan 12.000,
Naftali qabilasidan 12.000,
Manashe qabilasidan 12.000,
7 Shimo‘n qabilasidan 12.000,
Levi qabilasidan 12.000,
Issaxor qabilasidan 12.000,
8 Zabulun qabilasidan 12.000,
Yusuf qabilasidan 12.000,
Benyamin qabilasidan 12.000 kishi.

Oq kiyimli olomon

9 Shundan keyin men sanog‘iga yetib bo‘lmaydigan katta bir olomonni ko‘rdim. Turli
xil xalq, qabila, elatu millatlarga mansub bo‘lgan bu odamlar taxt oldida, Qo‘zining
huzurida turishardi. Hammasining egnida oq libos, qo‘llarida palma daraxti shoxlari*
bor edi. 10 Ular ovozlari boricha shunday hayqirishardi: “Taxtda o‘tirgan Xudoyimiz
bilan Qo‘zi najot berish qudratiga egadirlar!” 11 Hamma farishtalar taxt atrofida,
oqsoqollar va to‘rtta mavjudot atrofida turar edilar. Ular taxt oldida muk tushib, Xudoga
sajda qilgan holda 12 shunday deyishardi:

“Omin!
Xudoyimizga hamdu sanolar bo‘lsin!
Donoligu kuch–qudrat Sohibiga
Abadulabad shukronayu shon–sharaflar bo‘lsin!
Omin.”

13 Oqsoqollardan biri mendan so‘radi:
— Oq libos kiygan bu odamlar kim? Ular qayerdan kelganlar?
14 — Taqsir, bunisi o‘zingizga ayon, — deya javob berdim men. U menga shunday
dedi:
— Bular qattiq quvg‘inlardan o‘tib kelganlar. Ular liboslarini Qo‘zining qoni bilan
yuvib oqartirganlar. 15 Shuning uchun ular Xudoning taxti oldida turadilar va Uning
Ma’badida kecha–kunduz xizmat qiladilar. Taxtda O‘tirgan esa ularni O‘z panohida
asraydi. 16 Ular endi och qolmaydilar, chanqamaydilar. Quyosh ham, oftob ham ularni
urmaydi. 17 Zotan, taxt oldida turgan Qo‘zining O‘zi ularga cho‘ponlik qiladi. Ularni
hayotbaxsh suv buloqlariga olib boradi. Xudo ularning ko‘zidagi har bir tomchi yoshni
artib qo‘yadi.

8–BOB

Yettinchi muhr

1 Qo‘zi yettinchi muhrni yechganda, samo yarim soatcha sukunatda qoldi. 2 Men
Xudoning huzurida turgan yettita farishtani ko‘rdim. Ularning har biriga bittadan
karnay berildi.
3 Boshqa bir farishta kelib, qurbongohning oldida turdi. Uning qo‘lida oltin olovkurak
bor edi. Unga ko‘p xushbo‘y tutatqilar berildi. U bu tutatqilarni barcha Xudo azizlarining
ibodatlariga qo‘shib, taxt oldida turgan oltin qurbongoh ustida nazr qilishi kerak edi.
4 Tutatqilarning tutuni Xudo azizlarining ibodatlari bilan birga farishtaning qo‘lidan
yuqoriga — Xudoning huzuriga ko‘tarildi. 5 Farishta olovkurakni olib, uni
qurbongohdagi otash bilan to‘ldirdi–da, yer yuziga uloqtirib yubordi. O‘shanda
momaqaldiroqning gulduros sadosi yangrab, chaqmoq chaqdi, zilzila boshlandi.

Oxirzamon karnaylari

6 Yettita farishta qo‘llaridagi karnaylarni chalishga tayyorlandilar.
7 Birinchi farishta karnayini chaldi. Shunda do‘l, olov va qon yer yuziga yog‘dirildi.
Yerning uchdan bir qismi yonib ketdi, daraxtlarning uchdan biri va hamma o‘t–o‘lanlar
kuyib ketdi.

8 Ikkinchi farishta karnayini chaldi. Shunda lovullab yonayotgan ulkan toqqa
o‘xshash bir narsa dengizga otildi. Dengizning uchdan bir qismi qonga aylandi.
9 Dengizdagi jonzotlarning uchdan bir qismi o‘ldi, kemalarning uchdan bir qismi
halokatga uchradi.
10 Uchinchi farishta karnayini chaldi. Shunda osmondan ulkan bir yulduz tushdi.
Mash’ala bo‘lib yonayotgan bu yulduz daryolarning uchdan bir qismiga va suv
buloqlariga tushdi. 11 Bu yulduzning nomi Erman* edi. Suvlarning uchdan bir qismi
achchiq bo‘ldi. Achchiq suvdan ko‘p odamlar o‘ldi.
12 To‘rtinchi farishta karnayini chaldi. Quyoshning uchdan bir qismi, oyning va
yulduzlarning uchdan bir qismi zarba yeb, qorong‘ilashdi. Natijada kunduzning ham,
tunning ham uchdan bir qismi yorug‘likdan mahrum bo‘ldi.
13 Keyin men boshim uzra uchib ketayotgan bir burgutni* ko‘rdim. U baland ovozda
shunday deganini eshitdim: “Yer yuzida yashayotganlarning holiga voy! Holiga voy!
Holiga voy! Axir, qolgan uchta farishta hozir karnaylarini chalishadi.”

9–BOB

Beshinchi karnay: jahannam qa’ridan chiqqan chigirtkalar

1 Beshinchi farishta karnayini chaldi. Shunda men osmondan yerga tushgan bir
yulduzni* ko‘rdim. Unga jahannam qa’rining kaliti berilgan edi. 2 U jahannam qa’rini
ochdi. Ulkan o‘choqdan chiqayotganday, jahannam qa’ridan tutun burqirab chiqdi. Bu
tutundan quyosh va havo qorong‘ilashib ketdi. 3 Tutundan chigirtkalar* chiqib, yer
yuziga tarqaldi. Ularga yerdagi chayonlarning kuchiga o‘xshash bir kuch berilgan edi.
4 Chigirtkalarga: “Yer yuzidagi o‘t–o‘lanlarga, bironta o‘simlik yoki daraxtga
tegmanglar”, deb aytilgan edi. Ular faqat peshanalarida Xudoning muhri* bo‘lmagan
odamlarga zarar yetkazishlari mumkin edi. 5 Odamlarni o‘ldirish chigirtkalarga man
etilgandi. Ular odamlarga besh oy davomida azob berishlari kerak edi. Bu azob chayon
chaqqandagi azobga o‘xshardi. 6 O‘sha besh oy davomida odamlar o‘lim izlaydilar, ammo
topolmaydilar. O‘limni orzu qiladilar, ammo o‘lim ulardan qochadi.
7 Chigirtkalarning ko‘rinishi jangga shaylangan otlarga o‘xshar edi. Ularning boshida
oltin tojga o‘xshagan narsalar bor, yuzlari esa odamsimon edi. 8 Sochlari ayollarning
sochiga, tishlari esa arslon tishiga o‘xshar edi. 9 Ko‘kraklari temir sovutday edi.
Qanotlarining tovushi esa urushga yelib borayotgan tumonat jang aravalarining
tovushini eslatardi. 10 Chayonlarnikiga o‘xshash dumlari va nishlari bor edi. Insonlarga
besh oy davomida zarar yetkazish uchun olgan kuch–qudrati o‘sha dumlarida edi.
11 Ularga jahannam qa’rining farishtasi hukmronlik qilardi. Bu farishtaning oti
ibroniychada Abaddo‘n, yunonchada Apollion, ya’ni “halok qiluvchi” demakdir.
12 Birinchi halokat o‘tdi, bundan keyin yana ikkita halokat bor.

Oltinchi karnay: otliq qo‘shinlar

13 Oltinchi farishta karnayini chaldi. Shunda men Xudo huzuridagi oltin
qurbongohning to‘rtta shoxi* tomonidan kelayotgan bir ovozni eshitdim. 14 Bu ovoz
karnay tutgan oltinchi farishtaga shunday dedi: “Buyuk Furot daryosi bo‘yida bog‘lab
qo‘yilgan to‘rt farishtani yechib yubor!”
15 Bu to‘rtta farishta o‘sha soat, o‘sha kun, o‘sha oy va o‘sha yil uchun saqlab kelingan
edi. Ular insoniyatning uchdan bir qismini qirib tashlash uchun bo‘shatildi. 16 Ular ikki

yuz millionlik otliq qo‘shinni boshqarishardi, men ularning sonini eshitdim. 17 Men
ko‘rgan vahiydagi otlar bilan suvorilarning ko‘rinishi quyidagicha edi: suvorilarning
sovutlari olovday qizil, to‘q ko‘k va oltingugurtday sariq rangda edi. Otlarning boshi
arslon boshiga o‘xshar, og‘izlaridan olov, tutun va oltingugurt otilib chiqardi.
18 Insoniyatning uchdan bir qismi shu uch balodan — olov, tutun va oltingugurtdan o‘ldi.
19 Otlarning kuchi ham og‘zida, ham dumlarida edi. Ularning dumlari ilonlarga o‘xshardi.
Bu ilonlar odamlarni chaqib, jarohatlardi.

20 Bu balolardan omon qolgan insonlar esa o‘zlari yasagan butlaridan voz
kechmadilar, jinlarga sig‘inishdan qaytmadilar. Ko‘rmaydigan, eshitmaydigan,
yurmaydigan oltin, kumush, bronza, tosh va yog‘och butlarga sajda qilaverdilar.
21 Qotilliklaridan, issiq–sovuq qilishdan, fahsh–zino va o‘g‘riliklaridan qaytmadilar.

10–BOB

Farishta va kichkina o‘rama qog‘oz

1 Men samodan tushayotgan boshqa kuchli bir farishtani ko‘rdim. U bulutga
burkangan edi. Uning boshi uzra kamalak bor edi. Yuzi quyoshday porlar, oyoqlari olov
ustunlariday lovullab turar edi. 2 Uning qo‘lida kichkinagina ochilgan o‘rama qog‘oz* bor
edi. U o‘ng oyog‘ini dengiz ustiga, chap oyog‘ini yer yuziga qo‘yganicha, 3 sher
o‘kirganday qattiq hayqirdi. U hayqirganda yetti momaqaldiroq ham tilga kirib,
gulduros ovoz bilan gapira boshladi. 4 Yetti momaqaldiroq gapirganda, men ularning
gaplarini yozmoqchi bo‘ldim. Lekin samodan bir ovoz shunday dedi:

— Yetti momaqaldiroqning gaplarini yozma, ularni sir saqla!

5 Dengiz va yer yuzida turgan, men ko‘rgan farishta o‘ng qo‘lini osmonga ko‘tardi. 6-
7 U to abad barhayot Xudo haqi ont ichdi. Yeru osmonni, dengiz va ularni to‘ldirgan
jamiki jonivorlarni yaratgan Xudo haqi ont ichib, shunday dedi:

— Xudo payg‘ambar qullariga O‘zining sir tutgan rejasini ma’lum qilgandi. Yettinchi
farishta karnay chalganda, Xudo o‘sha rejasini amalga oshiradi. Endi kechiktirmaydi.

8 Samodan kelgan ovoz menga yana dedi:

— Bor, dengiz va yer ustida turgan farishtaning qo‘lidan ochiq o‘rama qog‘ozni ol.

9 Men farishtaning yoniga borib:

— O‘rama qog‘ozni menga bering, — dedim. Farishta menga dedi:

— Mana, ol! Uni yegin! U ichingni achitib yuboradi, og‘zingga esa asalday shirin ta’m
beradi.

10 Men o‘rama qog‘ozni farishtaning qo‘lidan olib yedim. U og‘zimda asaldek shirin
edi. Ammo uni yutganimdan keyin ichim achishib ketdi.

11 So‘ng menga shunday deb aytishdi:

— Sen yana ko‘p elatlar haqida, xalqlar, millatlaru shohlar haqida bashorat qilishing
kerak.

11–BOB

Oxirzamonning ikki shohidi

1 Menga o‘lchash uchun bir qamish berildi, so‘ng shunday deb aytildi: “Bor, Xudoning
Ma’badini va qurbongohni o‘lchab chiq. U yerda sajda qiluvchilarni sanagin.

2 Ma’badning tashqi hovlisini esa qoldir, uni o‘lchama. Chunki u yer butparastlarga
berilgan. Ular muqaddas shaharni* 42 oy oyoq osti qiladilar. 3 Men ikki shohidimga
qudrat beraman. Ular egnilariga qanor kiyib*, 1260 kun* davomida va’z qiladilar.
4 Bu ikki shohid — butun dunyo Egasining huzurida turgan ikkita zaytun daraxti va
ikkita chiroqpoyadir. 5 Bordi–yu, birontasi ularga ozor yetkazmoqchi bo‘lsa, ularning
og‘zidan olov chiqib, o‘sha dushmanni yeb bitiradi. Ularga ozor berishni istaganlar shu
yo‘sinda halok bo‘ladi. 6 Bu ikki shohid va’z qiladigan kunlarda yomg‘ir yog‘masligi
uchun Xudo ularga osmonni berkitish qudratini bergan. Ularga yana suvni qonga
aylantirish va yer yuzini istagan vaqtlarida turli baloyu ofatlarga yo‘liqtirish qudrati
berildi.
7 Ular shahodat berib bo‘lganlaridan keyin, tubsiz chuqurlikdan chiqqan bir maxluq*
ular bilan jang qiladi, ularni yengib, o‘ldiradi. 8 Ularning jasadlari buyuk shaharning*
ko‘chasida yotadi. Shohidlarning Rabbiysi Iso ham o‘sha shaharda xochga mixlangan
edi. O‘sha shaharning ramziy nomi Sado‘m va Misrdir*. 9 Barcha elu qabilalar, millatu
xalqlardan bo‘lgan odamlar uch yarim kun davomida ularning jasadlarini tomosha
qiladilar. Ularni dafn etishga ruxsat berishmaydi. 10 Yer yuzida yashayotganlar
shohidlarning o‘limidan sevinib xursandchilik qilishadi. Bir–birlariga hadyalar
yuborishadi. Chunki bu ikkala payg‘ambar yer yuzida yashovchilarga ko‘p azob bergan
edi.”
11 Ammo uch yarim kundan keyin ikkala payg‘ambarning vujudiga Xudoning hayot
nafasi kirdi. Shunda ular oyoqqa turdilar. Ularni ko‘rganlarning hammasini qattiq
vahima bosdi. 12 Ikki payg‘ambar samodan kelgan baland bir ovozning: “Bu yoqqa
chiqinglar!” — deganini eshitishdi, shunda ular dushmanlarining ko‘z o‘ngida bulut
ichida samoga ko‘tarilishdi. 13 O‘sha zahoti shiddatli zilzila yuz berdi. Shaharning o‘ndan
bir qismi quladi. Zilzilada yetti ming kishi nobud bo‘ldi. Qolganlari esa vahimaga tushib,
Samoviy Xudoni ulug‘lashdi.
14 Ikkinchi halokat o‘tdi. Mana, uchinchi halokat tez yaqinlashyapti.

Yettinchi karnay: samodagi hamdu sano

15 Yettinchi farishta karnayini chaldi. Samoda baland ovozlar yangradi. Ular shunday
deb aytayotgan edilar:

> “Endi bu dunyo hukmronligi
> Egamizga va Uning Masihiga tegishlidir.
> Ular abadulabad hukmronlik qilishadi.”

16 Shunda Xudoning huzuridagi o‘z taxtlarida o‘tirgan yigirma to‘rt nafar oqsoqol yuz
tuban yerga muk tushdilar. Ular Xudoga sajda qilib dedilar:

> 17 “Yo Qodir Xudo — Egamiz!
> Sen bor bo‘lgansan, hozir ham borsan*.
> Biz Senga tashakkurlar aytamiz.
> Axir, Sen buyuk qudratingni namoyon etding,
> Hukmronlik qila boshlading.
> 18 Xalqlar Sendan g‘azablangandi,
> Endi Sen ham g‘azabga minding.

Endi vaqti keldi o‘liklarni hukm qilishga,
Payg‘ambar qullaringni, azizlaringni mukofotlashga,
Sendan qo‘rqqan kattayu kichikni taqdirlashga.
Yerni vayron qilganlarni vaqti keldi xonavayron qilishga!”

19 So‘ng Xudoning samodagi Ma’badi ochildi. Ma’badda Xudoning Ahd sandig‘i ko‘rindi*.
O‘shanda chaqmoq chaqib, momaqaldiroqning gulduros sadolari yangradi, zilzila
boshlandi, shiddatli do‘l yog‘di.

12–BOB

Tuqqan ayol va ajdarho

1 Osmonda ajoyib bir alomat ro‘y berdi: quyoshga burkangan bir ayol paydo bo‘ldi.
Uning oyoqlari ostida oy va boshida o‘n ikki yulduzli toj bor edi. 2 Ayol homilador bo‘lib,
uni to‘lg‘oq tutar, dard bilan baqirar edi.
3 So‘ngra osmonda boshqa bir alomat ko‘rindi: yetti boshli, o‘nta shoxli ulkan qizil
ajdarho paydo bo‘ldi. Uning har bir boshida bittadan toji bor edi. 4 U dumi bilan
osmondagi yulduzlarning uchdan bir qismini sudrab, yerga uloqtirdi. Ajdarho to‘lg‘oq
tutgan ayolning oldiga turib oldi. Chaqaloq tug‘ilishi bilanoq ajdarho uni yutib
yubormoqchi edi. 5 Ayol o‘g‘il ko‘rdi. Kelajakda barcha xalqlarni temir xivchin bilan
boshqaradigan* bu o‘g‘lon darhol olib ketildi. U Xudoning huzuriga, taxtga keltirildi.
6 Ayol esa cho‘lga qochib bordi. U yerda 1260 kun davomida ayolga g‘amxo‘rlik qilishsin
deb, Xudo maxsus joy hozirlab qo‘ygan edi.
7 Shundan keyin samoda jang boshlandi. Mikoyil* va uning farishtalari ajdarhoga
qarshi chiqishdi. Ajdarho ham o‘zining farishtalari bilan Mikoyilga qarshi jang qildi.
8 Ammo ajdarho talafot ko‘rdi. Unga va uning farishtalariga endi samoda joy yo‘q edi.
9 Ulkan ajdarho yerga uloqtirildi. Butun dunyoni aldagan bu almisoq ilon iblis va
shayton deb atalgan. U o‘z farishtalari bilan yerga uloqtirildi.
10 Shunda men samodan baland ovozda aytilgan bu so‘zlarni eshitdim:

“Xudoyimiz najotu qudratini ayon qildi,
Mana, Uning Shohligi keldi.
Xudoning Masihi hokimiyati o‘rnatildi.
Axir, birodarlarimizning tuhmatchisi yerga uloqtirildi,
Ha, Xudoyimiz huzurida kecha–kunduz
Ularga tuhmat qilayotgan iblis pastga otildi.
11 Ular Qo‘zining qoni tufayli,
O‘zlarining shahodat so‘zi tufayli iblisni yengdilar.
Hatto o‘lim xavfi ostida bo‘lganlarida jonlarini ayamadilar.
12 Ey osmonu falak, xursand bo‘l!
Unda yashovchilar, shodlaning!
Ammo, ey yeru dengiz, sizning holingizga voy!
Zero, iblis oldingizga tushdi.
Vaqti oz qolganini bilib, u qahru g‘azabga mindi.”

13 Ajdarho o‘zining yer yuziga uloqtirilganini anglagach, o‘g‘il bola tuqqan ayolni ta’qib

qila boshladi. 14 Ayol o‘sha ilondan qocha olishi uchun unga katta burgutning ikki qanoti
berildi. U sahroga — uch yarim yil* davomida unga g‘amxo‘rlik qilinadigan joyga qochib
borishi kerak edi. 15 Ilon esa, uni sel oqizib ketsin deb, og‘zini ochdi–da, ayolning ketidan
daryoday suv oqizdi. 16 Ammo yer ayolga yordam berdi. Yer dahanini ochib, ajdarho
oqizgan daryoni yutib yubordi. 17 Ajdarho ayoldan qattiq g‘azablandi. U ayolning boshqa
farzandlari bilan jang qilgani chiqdi. Ayolning farzandlari — Xudoning amriga itoat
qilgan va Isoning shahodatiga sodiq qolgan odamlardir.

13–BOB

Dengizdan chiqqan maxluq

1 Ajdarho dengizning qum sohiliga borib turdi*.

To‘satdan men dengizdan bir maxluq chiqib kelganini ko‘rdim. Uning yettita boshi
va o‘nta shoxi bor edi. Har bir shoxiga bittadan toj kiydirilgan, har bir boshiga esa
kufrona nom yozilgandi. 2 Men ko‘rgan bu maxluq qoplonga o‘xshardi. Oyoqlari ayiqning
oyog‘iga, og‘zi esa sherning og‘ziga o‘xshar edi. Ajdarho bu maxluqqa o‘z qudrati, taxti va
buyuk hokimiyatini berdi. 3 Maxluqning boshlaridan biri davolab bo‘lmaydigan darajada
qattiq yaralangan edi. Ammo uning bu yarasi sog‘ayib qoldi. Shunda butun jahon
hayratda qolib, maxluqqa ergashdi. Odamlar ajdarhoga sajda qilishdi, chunki ajdarho
maxluqqa o‘z hokimiyatini berdi. 4 Ular maxluqqa ham sajda qilib, shunday deb
aytishardi: “Kim ham bu maxluqqa teng kelardi?! Kim ham unga qarshi chiqa olardi?!”

5 Maxluqqa takabburona va kufrona so‘zlar aytadigan og‘iz berildi. Unga qirq ikki oy
davomida hukmronlik qilish huquqi berildi. 6 Maxluq kufr ketib, Xudoni va Xudoning
nomini la’natladi. U Xudo yashaydigan makonga va samoda yashaydigan har bir
mavjudotga la’natlar yog‘dirdi. 7 Unga Xudoning azizlariga qarshi jang qilish va ularni
yengish uchun izn berildi. Unga har bir qabila, elat, millat va xalq ustidan hokimiyat
berildi.

8 Bu dunyoga qarashli odamlarning hammasi maxluqqa sajda qilishadi. Ularning
ismlari bo‘g‘izlangan Qo‘zining hayot kitobiga* dunyo yaratilishidan oldin yozilmagan*.

9 Kimning eshitar qulog‘i bo‘lsa, eshitsin!
10 Hamma peshanasidagini ko‘radi:
Ba’zilar asirlikka tushib, surgunga ketadi.
Ba’zilar qilichdan o‘tkaziladi*,
Bu vaziyat Xudo azizlaridan sabr–toqatu imonni talab qiladi.

Yerdan chiqqan maxluq

11 Bundan so‘ng men yerdan chiqayotgan boshqa bir maxluqni ko‘rdim. Uning ikki
shoxi qo‘chqorning shoxlariga o‘xshardi, u ajdarhoday gapirardi. 12 U birinchi maxluqqa
xizmat qilib, uning butun hokimiyatini ishga solardi. Butun yer yuzi va u yerda
yashaganlar yarasi tuzalgan birinchi maxluqqa sajda qilsin deb, ularni majburlardi. 13 Bu
ikkinchi maxluq buyuk va mo‘jizali alomatlar ko‘rsatdi. U hatto hammaning ko‘zi oldida
osmondan yerga olov tushirdi. 14 Birinchi maxluqning nomidan bu mo‘jizali alomatlarni
ko‘rsatishga unga izn berilgandi. Bu alomatlari bilan u yer yuzidagi odamlarni yo‘ldan
ozdirdi. U odamlarga: “Qilichdan yaralangan, ammo sog‘ qolgan maxluqning tasvirini
yasanglar”, — deb buyurdi. 15 Unga maxluqning tasviriga jon ato etish qudrati

berilgandi. Maxluq tasviri tilga kirdi va o‘ziga sajda qilmaganlarning hammasini o‘ldirtirdi. 16 U hammani — kattayu kichikni, boyu kambag‘alni, qulu erkin odamni majburlab, ularning o‘ng qo‘li yoki peshanasiga tamg‘a bostirdi. 17 Kimda maxluqning tamg‘asi bo‘lmasa, u mutlaqo oldi–sotdi qilolmasdi. Tamg‘ada maxluqning nomi yoki nomining soni yozilardi.

18 Bunda hikmat bor. Aqli yetgan odam maxluqning sonini hisoblab chiqsin, chunki bu son — ma’lum bir insonni bildiradigan sondir. Uning soni 666*.

14–BOB

Qo‘zi va 144.000 kishi

1 Men Sion tog‘ida* Qo‘zining turganini ko‘rdim. Qo‘zi bilan birga 144.000 kishi bor edi. Ularning peshanalariga Qo‘zining va Otasi Xudoning ismi yozilgandi. 2 Shunda men samodan bir tovush eshitdim. Bu tovush dengizning shovullashiday, gumburlagan momaqaldiroq tovushiday edi. U xuddi arfa chalayotgan cholg‘uchilarning kuyiga o‘xshardi. 3 O‘sha 144.000 kishi taxt oldida, to‘rtta jonli mavjudot va oqsoqollar oldida yangi bir qo‘shiq kuylayotgan edilar. Dunyodan qutqarib olingan bu 144.000 kishidan boshqa hech kim bu qo‘shiqni o‘rgana olmas edi. 4 Bu odamlar bulg‘anmaganlar, bokira qizlarday o‘zlarini pok saqlaganlar*. Qo‘zi qayerga borsa, Uning orqasidan ergashganlar. Insonlar orasidan qutqarib olingan bu odamlar ilk hosil singari, Xudo va Qo‘ziga nazr qilinganlar. 5 Ularning tilida yolg‘on–makr yo‘q, ular benuqsondirlar*.

Uch farishtaning xabari

6 Shundan keyin boshim uzra uchib borayotgan bir farishtani ko‘rdim. Bu farishta yer yuzida yashovchi har bir xalq va qabilaga, har qanday millatu elatga abadiy Xushxabarni e’lon qilayotgan edi. 7 U baland ovozda shunday dedi:

> “Xudodan qo‘rqing, Uni ulug‘lang!
> U xalqlarni hukm qiladigan vaqt keldi.
> Yeru osmonni, dengizu buloqlarni Yaratganga sajda qiling!”

8 Uning ketidan ikkinchi farishta uchib kelib, shunday dedi:

> “Vayron bo‘ldi!
> Buyuk Bobil shahri* vayron bo‘ldi!
> Bobil shahvoniy hirsi sharobidan
> Hamma xalqlarga ichirgandi.”

9 Ularning ketidan uchinchi farishta uchib kelib, baland ovozda shunday dedi:

— Kimki maxluqqa va uning tasviriga sajda qilib, peshanasi yoki qo‘liga tamg‘a qabul qilsa, 10 u Xudoning g‘azab sharobidan ichadi. Qahr kosasiga quyilgan bu sharob nihoyatda kuchlidir. Bunday odamlar muqaddas farishtalar va Qo‘zi oldida yonayotgan oltingugurt ichida azob chekadilar. 11 Azoblarining tutuni abadulabad burqirab turadi. Maxluq va uning tasviriga sajda qilib, maxluq nomli tamg‘ani qabul qilganlar kechayu kunduz tinchlik bilmaydilar. 12 Bunday vaziyatda Xudoning amrlariga itoat qilgan va Isoga sodiq qolgan Xudoning azizlaridan sabr–toqat talab qilinadi.

13 Shunda men samodan bir ovoz eshitdim. U menga dedi:

— Shunday deb yoz: bundan buyon Rabbimiz Isoga umid bog‘lab, olamdan ko‘z yumganlar baxtlidir!

— Ha, — deydi Ruh, — ular qilgan og‘ir mehnatidan dam olsinlar, mehnatining rohatini ko‘rsinlar.

Yerning hosili o‘riladi

14 Shundan keyin men bir oq bulutni ko‘rdim. Bulut ustida inson qiyofasidagi bir Zot* o‘tirgandi. Uning boshida oltin toj, qo‘lida o‘tkir o‘roq bor edi. 15 Keyin Ma’baddan bir farishta chiqdi. U bulut ustida o‘tirgan Zotga baland ovozda shunday dedi: “O‘rog‘ingizni ishga soling, chunki o‘rim–yig‘im vaqti keldi. Mana, yerning hosili yetildi.” 16 Bulut ustida o‘tirgan Zot yerga o‘roq soldi, yerning hosili o‘rildi.

17 Samodagi Ma’baddan boshqa bir farishta chiqdi. Uning ham o‘tkir o‘rog‘i bor edi. 18 So‘ng qurbongoh oldidan yana boshqa bir farishta keldi. U qurbongohdagi olov uchun mas’ul edi. U o‘tkir o‘roqli farishtaga baland ovozda xitob qildi: “O‘tkir o‘rog‘ingni ishga sol. Yerdagi uzum boshlarini yig‘. Axir, uzum pishib bo‘ldi.”

19 Farishta o‘rog‘ini yerga soldi. Yerdagi uzum boshlarini yig‘ib, Xudoning uzum siqadigan katta qahr–g‘azabi chuquriga* uloqtirdi. 20 Shahar tashqarisidagi o‘sha chuqurda uzumlarni eza boshlashdi. Chuqurdan qon daryo bo‘lib oqib chiqdi. Bu qonli daryo 1600 o‘q otimi* masofaga oqib bordi, u shunchalik chuqur ediki, deyarli otni ko‘mib yuborar edi.

15–BOB

Yetti farishta va yetti balo

1 Men samoda buyuk va hayratga soladigan boshqa bir alomatni ko‘rdim. Samoda yettita farishta turardi, har birining qo‘lida bittadan balo bor edi. Bu balolar so‘nggi balolar bo‘lib, Xudo g‘azabini yakunlar edi.

2 Men go‘yo olov aralash oynaday bo‘lgan bir dengizni ko‘rdim. Uning yonida odamlar turgan edi. Ular maxluq ustidan, uning tasviri va nomini bildirgan son* ustidan g‘alaba qozongan edilar. Ularning qo‘llarida Xudo bergan arfalar bor edi. 3 Ular Xudo quli Musoning va Qo‘zining qo‘shig‘ini* kuylardilar:

> “Yo Qodir Xudo — Egamiz,
> Buyuk va ajoyibdir Sening ishlaring.
> Ey xalqlarning Shohi!
> To‘g‘ri va haqdir Sening yo‘llaring.
> 4 Ey Egamiz, Sendan qo‘rqmaydigan bormi?!
> Nomingni ulug‘lamaydigan bormi?!
> Axir, yolg‘iz O‘zing muqaddasdirsan.
> Jamiki xalqlar huzuringga keladilar,
> Ular Senga sajda qiladilar.
> Zero, odil hukmlaring hammaga ayon bo‘ldi.”

5 Shundan so‘ng men samoviy Ma’badning Eng muqaddas xonasi* ochilganini ko‘rdim. 6 Ma’baddan yetti baloni tutgan yettita farishta chiqdi. Ularning egnida toza, oppoq zig‘ir liboslar bor edi, ko‘ksilariga oltin tasmalar bog‘langan edi. 7 To‘rtta

mavjudotdan biri bu yetti farishtaga yettita oltin kosani berdi. Bu kosalar to abad barhayot Xudoning g‘azabi bilan to‘lgan edi. 8 Ma’bad Xudoning ulug‘vorligi va qudrati tutuniga to‘lib ketdi. Yetti farishtaning yetti balosi tamom bo‘lmaguncha, hech kim Ma’badga kira olmadi.

16–BOB

Xudoning g‘azabiga to‘la yetti kosa

1 Bundan keyin men Ma’baddan kelayotgan baland bir ovozni eshitdim. O‘sha ovoz yettita farishtaga shunday dedi: “Boringlar, Xudoning g‘azabiga to‘lib–toshgan yetti kosadagi balolarni yerga to‘kinglar.”

2 Birinchi farishta borib, kosasidagini yerga to‘kdi. Maxluqning tamg‘asi bosilgan va uning tasviriga sajda qilgan odamlarda og‘ir, jirkanch yaralar paydo bo‘ldi.

3 Ikkinchi farishta kosasidagini dengizga to‘kdi. Dengiz o‘likning qoniga o‘xshab qoldi. Dengizdagi hamma jonivorlar qirilib ketdi.

4 Uchinchi farishta kosasidagini daryolarga va buloqlarga to‘kdi, ular ham qonga aylandi. 5 Suvlar uchun mas’ul bo‘lgan farishtaning shunday deganini eshitdim:

“Ey Muqaddas Xudo,
Sen bor bo‘lgansan, hozir ham borsan.
Sening chiqargan bu hukmlaring odildir.
6 Azizlaring va payg‘ambarlaringning qonini to‘kkanlarga
Sen qon ichirding, ular bunga loyiqdir.”

7 Qurbongohdan shunday bir ovoz eshitildi:

“Ha, Qodir Xudo — Egamiz!
Sening hukmlaring haq va adolatlidir.”

8 To‘rtinchi farishta o‘z kosasini quyosh ustiga to‘kdi, quyoshga insonlarni olov bilan yondirish qudrati berildi. 9 Jazirama issiq insonlarni kuydirganda, ular bu ofatlar ustidan hokimiyatga ega bo‘lgan Xudoni la’natladilar. Ular qilmishlaridan tavba qilmadilar, Xudoni ulug‘lamadilar.

10 Beshinchi farishta kosasidagini maxluq taxtiga to‘kdi, maxluqning saltanati zimistonga chulg‘anib qoldi. Odamlar chekkan azobidan tillarini tishlardilar.
11 Yaralarining og‘rig‘idan Samoviy Xudoni la’natlardilar. Ammo qilmishlaridan tavba qilmadilar.

12 Oltinchi farishta kosasidagini buyuk Furot daryosi ustiga to‘kdi. Daryoning suvi quridi. Sharqdan bostirib keladigan shohlarga yo‘l ochildi.

13 Bundan keyin men qurbaqalarga o‘xshash uchta yovuz ruhni ko‘rdim. Ular ajdarho, maxluq va soxta payg‘ambarning* og‘izlaridan chiqayotgan edilar. 14 Bular jinlar bo‘lib, mo‘jizali alomatlar ko‘rsata olardilar. Ular Qodir Xudoning ulug‘ kunida bo‘ladigan jangga barcha jahon shohlarini to‘plagani bordilar.

15 Masihning shunday gaplarini yodingizda tuting:
“Mana, Men o‘g‘ri kabi nogahon kelaman!

Hushyor turgan kishi baxtlidir,
Yalang‘och yurmayin, sharmanda bo‘lmayin deb,
Kiyimini taxt qilib qo‘ygan kishi baxtlidir!”

16 Uchta yovuz ruh jahon shohlarini ibroniychadagi Xar–Magido‘n degan joyga
to‘pladilar.
17 Yettinchi farishta kosasidagini havoga to‘kdi. Ma’baddagi taxtdan: “Amalga oshdi!”
— degan baland bir ovoz keldi. 18 Shu vaqt chaqmoq chaqib, momaqaldiroqning
gulduros sadolari yangradi, kuchli zilzila bo‘ldi. Zilzila shu qadar kuchli ediki, yer yuzida
inson yashagandan beri bunaqasi bo‘lmagandi. 19 Buyuk shahar uch qismga bo‘linib
ketdi. Boshqa xalqlarning shaharlari yer bilan yakson bo‘ldi. Xudo buyuk Bobil shahrini*
yodga oldi. U Bobilga kosadagi O‘zining g‘azabi sharobidan berdi. 20 Har bir orol o‘rnidan
jildi, tog‘lar ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. 21 Osmondan odamlar ustiga yirik do‘l yog‘ildi. Har bir
do‘l donasining og‘irligi ikki pud* chiqardi. Bu dahshatli do‘l dastidan odamlar Xudoni
la’natlashardi.

17–BOB

Maxluqni mingan ayol

1 Yettita kosani tutgan yetti farishtadan biri kelib, menga shunday dedi: “Bu yoqqa
kel, men senga mashhur fohishaning oladigan jazosini ko‘rsataman. Fohisha timsolidagi
bu buyuk shahar* serob suvlar bo‘yida joylashgan*. 2 Yer yuzining shohlari u bilan zino
qilardi, yer yuzida yashayotganlar uning fahshu zino sharobidan ichib, mast bo‘lishardi.”
3 Muqaddas Ruh meni qamrab oldi, farishta meni cho‘lga olib bordi. U yerda men
qip–qizil maxluq* ustida o‘tirgan bir ayolni ko‘rdim. Maxluqning hamma yog‘iga kufrona
nomlar yozilgandi, uning yettita boshi va o‘nta shoxi bor edi. 4 Ayol safsar va qip–qizil
liboslar kiygan, oltin, javohir va marvaridlar bilan bezangandi. Uning qo‘lida oltin kosa
bor edi, bu kosa jirkanchli narsalarga, fahshu haromliklarga to‘lib–toshgan edi.
5 Ayolning peshanasiga sirli ma’noga ega bo‘lgan shunday bir ism yozilgandi: “Buyuk
Bobil — fohishalarning va yer yuzidagi jirkanch ishlarning onasidir.”
6 Men ayolning Xudo azizlari qonidan, ya’ni Iso shohidlari qonidan mast bo‘lganini
ko‘rdim. Uni ko‘rib, g‘oyat darajada hayron qoldim.
7 Farishta menga dedi: “Nega hayron bo‘lasan? Men senga ayolning va u mingan yetti
boshli, o‘n shoxli maxluqning sirini aytib beraman. 8 Sen ko‘rgan bu maxluq
qachonlardir bor edi, endi esa yo‘q. U ko‘p o‘tmay tubsiz chuqurlikdan chiqadi va mahv
etiladi. Dunyo yaratilishidan oldin ismlari hayot kitobiga* yozilmagan yer yuzidagi
hamma odamlar maxluqni ko‘rib, hayron qoladilar. Chunki bu maxluq bor edi, hozir
yo‘q, ammo yana keladi.
9 Bularni anglamoq uchun aqlu idrok darkor. Maxluqning yetti boshi — ayol o‘tirgan
yettita tepalikning timsolidir. 10 Bu yetti bosh yettita hukmdorni ham bildiradi.
Bularning beshtasi qulagan, bittasi hozir hukmronlik qilyapti, boshqasi esa hali kelgani
yo‘q. U kelganda ham ko‘p vaqt turmaydi. 11 Ilgari bor, hozir yo‘q maxluq esa yettita
hukmdordan biri bo‘la turib, sakkizinchi hukmdor sifatida qaytib keladi va mahv etiladi.
12 Sen ko‘rgan maxluqning o‘nta shoxi hali taxtga o‘tirmagan boshqa o‘nta
hukmdorni bildiradi. Ular qisqa vaqt davomida maxluq bilan birga hukmronlik qiladilar.

13 Bu hukmdorlar birlashib, o‘zlarining qudrati va hokimiyatini maxluqqa topshiradilar.
14 Ular Qo‘ziga qarshi jang qiladilar. Ammo Qo‘zi O‘zining da’vat etilgan, tanlangan va
sodiq izdoshlari bilan ularni yengadi. Axir, Qo‘zi hukmdorlarning Hukmdori,
shohlarning Shohidir.”
15 Farishta menga yana shunday dedi: “Sen fohishaning suvlar bo‘yida o‘tirganini
ko‘rding. Bu suvlar to‘da–to‘da elatlarni, xalqlaru millatlarni bildiradi. 16 Sen ko‘rgan
o‘nta shox va maxluq fohishadan nafratlanadilar. Uni xonavayron qilib, yalang‘och
qoldiradilar. Uning etini yeydilar, qoldiqlarini esa olovda yondiradilar. 17 Xudoning
aytgan so‘zlari amalga oshmaguncha, o‘nta hukmdor birlashib, o‘z hokimiyatini
maxluqqa topshiradilar. Zero, bu maqsadni ularning diliga Xudoning O‘zi solgan. 18 Sen
ko‘rgan ayol — yer yuzi shohlari ustidan hukmronlik qiladigan buyuk shahardir.”

18–BOB

Bobil vayron bo‘ladi

1 Bundan keyin men samodan tushib kelayotgan boshqa bir farishtani ko‘rdim. Unda
buyuk hokimiyat bor edi. Uning ulug‘vorligidan yer yuzi yorishib ketdi. 2 U qattiq
hayqirib, shunday dedi:

“Vayron bo‘ldi! Buyuk Bobil* vayron bo‘ldi!
U jinlarning makoni, har turli yovuz ruhning panohi,
Har qanday harom va jirkanch qushning uyasi bo‘lib qoldi.
Axir, barcha xalqlar Bobilning
Shahvoniy hirsi sharobidan ichgandi.
3 Yer yuzi shohlari u bilan zino qilgandi,
Yer yuzi savdogarlari
Uning cheksiz shahvati tufayli boylik orttirgandi.”

4 Shu payt men samodan kelayotgan boshqa bir ovozni eshitdim. U shunday dedi:

“Ey xalqim, Bobildan chiqib keting!
Tag‘in gunohlariga sherik bo‘lib qolmang,
Tag‘in sizlar ham Bobilning balolariga duchor bo‘lmang!
5 Zero, uning gunohlari uyilib ko‘kka yetdi,
Xudo uning jinoyatlarini yodga oldi.
6 Bobil sizga nima qilgan bo‘lsa,
Xudo ham unga shuni qilsin!
Qilmishiga yarasha ikki barobar jazosini bersin!
O‘zi tayyorlagan ichimlikdan unga ikki barobar ichirsin!
7 Bobil qay darajada kekkayib, kayf–safo surgan bo‘lsa,
Unga shu darajada azobu iztirob berilsin!
Axir, u dilida shunday demoqda:
«Men malikaman, beva emasman,
Aslo qayg‘u chekmayman.»
8 Shu bois uning boshiga balolar keladi,
U bir kunning ichida o‘lat, qayg‘u, qahatchilikka duchor bo‘ladi.

Uni olovda yondirishadi.
Axir, uni hukm qiluvchi Egamiz Xudo qudratlidir!”

9 Bobil bilan zino qilib, kayf–safo surgan yer yuzi shohlari yonayotgan Bobilning
tutunini ko‘rib, uning holiga ho‘ngrab yig‘laydilar. 10 Bobilning azob–uqubatidan
dahshatga tushib, uzoqdan turib, deydilar:

“Ey buyuk shahar, holingga voy!
Ey qudratli Bobil, holingga voy!
Sen bir soatdayoq jazoingni olding!”

11 Yer yuzi savdogarlari ham uning holiga yig‘lab, motam tutadilar. Chunki ularning
molini endi hech kim sotib olmaydi. 12 Oltin, kumush, javohirlaru marvaridlarni, mayin
zig‘ir matosi, shoyi, safsaru qirmizi gazlamalarni, turli xil xushbo‘y yog‘ochlarni, fil
suyagidan yasalgan har xil buyumlarni, eng qimmatbaho yog‘ochdan, bronzadan,
temirdan va marmardan yasalgan buyumlarni, 13 dolchin, ziravorlar, xushbo‘y tutatqilar
va mirrani*, sharob, zaytun moyini, oliy navli un va bug‘doyni, mol–qo‘ylarni, otlaru
aravalarni, odamlarning jonini, tanasini ham sotib oladigan boshqa hech kim bo‘lmaydi.
14 Savdogarlar shunday deb aytishadi: “Ey Bobil, sen orzu qilgan ne’matlaring yo‘q
bo‘ldi. Hashamatu savlating nom–nishonsiz g‘oyib bo‘ldi.” 15 Ha, o‘sha mollarini Bobilga
sotib, boyib ketgan savdogarlar Bobilning azob–uqubatidan dahshatga tushib, qayg‘urib
yig‘laydilar:

16 “Holingga voy!
Ey buyuk shahar, holingga voy!
Sen mayin zig‘ir matosidan kiyim kiyar eding,
Safsaru qirmizi liboslar ila yasanarding.
Oltin, javohirlaru marvaridlar ila bezanarding.
17 Shunday boyliging bir soatdayoq nobud bo‘ldi–ya!”

Har bir kema darg‘asi, kemadagi yo‘lovchilar, dengizchilar va dengizda savdo–sotiq
qiluvchilarning hammasi uzoqdan Bobilga qarab turadilar. 18 Shahardagi yong‘indan
chiqayotgan tutunni ko‘rib, shunday faryod qiladilar: “Bu buyuk shaharga teng
keladigani yo‘q!” 19 Ular boshlariga kul sochib, faryod chekib, qayg‘urib, dod soladilar:

“Holingga voy!
Ey buyuk shahar, holingga voy!
Dengizdagi kemalarga ega bo‘lganlar
Sening ziynatlaring tufayli boylik orttirdilar.
Endi esa sen bir soatdayoq xarob bo‘lding!

20 Ey samo, uning holidan shodlangin,
Ey Xudoning azizlari, xursand bo‘ling,
Havoriylaru payg‘ambarlar, sevining!
Zero, Xudo sizlarni deb, Bobilni jazoladi.”

21 Keyin kuchli bir farishta tegirmon toshiga o‘xshash katta toshni ko‘tarib, dengizga

uloqtirdi–da, shunday dedi:

“Mana shunday shiddat bilan
Buyuk shahar Bobil qulaydi!
Endi u aslo qad ko‘tarmaydi.
22 Arfachilaru ashulachilarning ovozlari senda eshitilmas,
Naychiyu karnaychilarning kuyi senda yangramas.
Endi bironta hunarmand senda ustaxona ochmaydi.
Tegirmon toshining tovushi ko‘chalaringda eshitilmaydi.
23 Endi ko‘chalaringdagi chiroqlar shu’la sochmaydi,
Kuyov bilan kelinning ovozi eshitilmaydi.
Zero, savdogarlaring butun dunyoga so‘zini o‘tkazardi,
Sehr–jodularing dastidan jamiki xalqlar aldangan edi.
24 Payg‘ambarlar va Xudo azizlarining qoni ko‘chalaringda to‘kildi,
Ha, yer yuzida qirg‘inga duchor bo‘lganlar senda o‘ldirildi.”

19–BOB

Samodagi hamdu sano

1 Bundan keyin men samodagi katta olomonning g‘ala–g‘ovuriga o‘xshash baland ovozlarni eshitdim:

“Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin!
Najot, ulug‘vorlik va qudrat Xudoyimizga tegishlidir.
2 Zotan, U to‘g‘ri va adolatli hukm qiladi.
Yer yuzini fahsh–zino ila bulg‘agan ashaddiy fohishani U mahkum etdi,
Undan O‘z qullarining xunini oldi.”

3 Olomon yana shunday deb hayqirdi:

“Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin!
Bobildan* to abad burqirab tutun chiqadi.”

4 Shu payt yigirma to‘rt nafar oqsoqol va to‘rt mavjudot yerga muk tushib: “Omin! Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin!” — deya taxtda o‘tirgan Xudoga sajda qildilar.
5 Keyin taxtdan bir ovoz keldi:

“Ey Xudoyimizning barcha qullari,
Undan qo‘rquvchi kattayu kichiklar,
Xudoga hamdu sano aytinglar!”

6 So‘ngra men katta bir olomonning ovoziga o‘xshash, shovullagan dengiz, gumburlagan momaqaldiroqning sadosiga o‘xshash ovozlarni eshitdim. Ular shunday der edilar:

“Egamizga hamdu sanolar bo‘lsin!
Qodir Xudo — Egamiz hukmronlik qilmoqda!
7 Sevinib xursand bo‘laylik,

Hammamiz Uni ulug‘laylik!
Axir, Qo‘zining nikoh kuni keldi,
Uning kelini o‘zini to‘yga tayyorladi.”

8 Kiyishi uchun kelinga yarqiragan, pok, mayin zig‘ir libos berildi. Bu libos — Xudo azizlarining odil ishlaridir.

9 Keyin farishta menga shunday dedi:

— Qani, yoz: “Qo‘zining nikoh to‘yiga taklif etilganlar baxtlidir!”

Yana qo‘shib dedi:

— Bular Xudoning haq so‘zlaridir.

10 Men farishtaga sajda qilish uchun o‘zimni oyoqlari ostiga tashladim. Lekin u menga dedi:

— Yo‘q, menga sajda qilma! Faqat Xudoga sajda qil! Men ham senga o‘xshab Xudoga xizmat qilyapman, Iso haqida shahodat beradigan sen va birodarlaring singari, Xudoning xizmatkoriman. Darhaqiqat, Iso haqida shahodat berganlar payg‘ambarlardir, ular Xudoning haq xizmatkorlaridir.

Oq ot mingan Chavandoz

11 Bundan keyin men osmonning ochilganini ko‘rdim. U yerda bir oq ot turar edi. Ustidagi Chavandozni Sodiq va Haq deb chaqirishardi. U odilona hukm chiqarib, jang qilardi. 12 Uning ko‘zlari otash alangasiday chaqnardi. Boshida ko‘p tojlari bor edi. Peshanasiga esa O‘zidan boshqa hech kim bilmaydigan bir ism yozilgandi. 13 Egnidagi kiyimi qonga belangandi. Chavandozga “Xudoning Kalomi” deb nom berilgan edi. 14 Oppoq, top–toza, mayin zig‘ir libos kiygan samoviy qo‘shinlar oq otlarda Chavandozga ergashib borishardi. 15 Uning og‘zidan o‘tkir bir qilich chiqib turardi. U o‘sha qilichi bilan xalqlarni mag‘lub etadi, qo‘lidagi temir xivchin bilan ularni boshqaradi*. Qodir Xudoning qaynoq qahr–g‘azabi chuqurdagi* uzumlarni bosib ezadi. 16 Kiyimining son qismida: “shohlarning Shohi, hukmdorlarning Hukmdoridir” degan ism yozilgan.

17 Shundan so‘ng men quyosh ustida turgan bir farishtani ko‘rdim. U uchib ketayotgan barcha qushlarga baland ovozda shunday xitob qildi: “Xudoning buyuk bazmiga kelinglar! 18 Shohlar, sarkardalar, bahodir jangchilarning jasadlarini, otu suvorilar, hamma qulu erkin, kattayu kichikning jasadlarini yeyish uchun to‘planinglar!”

19 Shunda men maxluqni, yer yuzi shohlarini, ularning qo‘shinlarini ko‘rdim. Ular ot mingan Chavandoz bilan Uning qo‘shinlariga qarshi jang qilish uchun safarbar bo‘lgan edilar. 20 Maxluq asir tushdi. U bilan birga soxta payg‘ambar* ham asir olindi. Bu soxta payg‘ambar maxluqning nomidan mo‘jizali alomatlar ko‘rsatgandi, bu alomatlari bilan maxluqning tamg‘asini olgan va uning tasviriga sajda qilgan odamlarni aldagan edi. Maxluqni ham, soxta payg‘ambarni ham oltingugurt yonayotgan olov ko‘liga tiriklayin tashlashdi. 21 Boshqalar esa ot mingan Chavandozning og‘zidan chiqqan qilich bilan o‘ldirildi. Hamma qushlar bo‘kib qolguncha ularning go‘shtidan yedi.

20–BOB

Ming yillik tinchlik

1 Men samodan tushayotgan bir farishtani ko‘rdim. Uning qo‘lida tubsiz chuqurlikning kaliti va katta zanjir bor edi. 2 Farishta ajdarhoni tutib oldi. Iblis va

shayton deb atalgan bu almisoq ilonni u ming yil muddatga kishanlab qo‘ydi. 3 Yana
xalqlarni aldamasin deb, uni tubsiz chuqurlikka tashlab, qamab qo‘ydi. Ming yil tamom
bo‘lgunga qadar kiraverishni muhrladi. Ming yil o‘tgandan keyin uni qisqa bir muddatga
ozod qilishi kerak edi.
4 Bundan so‘ng, men taxtlarni va taxtlarda o‘tirganlarni ko‘rdim. Xudo taxtlarda
o‘tirganlarni oqlagan edi*. Ular Iso haqidagi shahodati va Xudoning so‘zi tufayli boshi
olinganlarning jonlari edi. Ular maxluqqa va uning tasviriga sajda qilmaganlar,
peshanalari va qo‘llariga uning tamg‘asini bostirmaganlar. Ular tirilib, Masih bilan ming
yil hukmronlik qildilar. 5-6 Bu birinchi tirilishdir. Birinchi tirilishda ishtirok etganlar
baxtli va muqaddasdir. Ikkinchi o‘lim* ularga hokim emas. Ular Xudoning va Masihning
ruhoniylari bo‘lib, U bilan ming yil davomida hukmronlik qiladilar.
Qolgan o‘liklar esa ming yil o‘tmaguncha tirilmadi.

Shayton jazolanadi

7 Ming yil o‘tgach, shayton o‘z zindonidan ozod etiladi. U chiqib, yerning to‘rt
burchagidagi xalqlarni, ya’ni Go‘g va Mago‘gni* aldab, jangga to‘playdi. To‘plangan
xalqlarning soni dengiz qumiday son–sanoqsiz bo‘ladi.
8 Ular butun yer yuzini qoplab oladilar, Xudo azizlarining qarorgohini va Xudo yaxshi
ko‘radigan shaharni* qamal qiladilar. 9 Shunda osmondan olov tushib, ularni qirib
tashlaydi. 10 Ularni aldagan iblis oltingugurtli ko‘lga tashlanadi. Maxluq va soxta
payg‘ambar* ham o‘sha ko‘lga tashlangan edilar. Ular kechayu kunduz, abadulabad u
yerda azob chekadilar.

Qiyomat kuni

11 Keyin men ulkan bir oq taxtni va taxtda o‘tirgan Zotni ko‘rdim. Uning huzuridan
yeru osmon qochar edi, biroq ularga yashiringani joy topilmadi. 12 Men o‘sha ulkan taxt
oldida turgan kattayu kichik o‘liklarni ko‘rdim. Kitoblar ochildi. Hayot kitobi* degan
boshqa bir kitob ham ochildi. O‘liklar kitoblarda yozilgani bo‘yicha qilmishlariga
yarasha hukm etildi. 13 Dengiz o‘zidagi o‘liklarni berdi, o‘lim ham, o‘liklar diyori* ham
o‘zlaridagi o‘liklarni berdi. Har bir kishi qilmishiga yarasha hukm etildi. 14 O‘lim va
o‘liklar diyori olov ko‘liga tashlandi. Mana bu olov ko‘li ikkinchi o‘limdir*. 15 Ismlari
hayot kitobida yozilmaganlarning hammasi olov ko‘liga tashlandi.

21–BOB

Yangi yeru osmon

1 Shundan keyin men yangi bir osmon va yangi bir yerni ko‘rdim. Avvalgi yeru
osmon g‘oyib bo‘lgan edi, dengiz ham endi yo‘q edi. 2 Men muqaddas shahar — yangi
Quddusni ko‘rdim. Quddus samodan, Xudo huzuridan tushib kelayotgan edi. U kuyovi
uchun bezanib olgan kelinchakka o‘xshar edi. 3 Men taxtdan baland bir ovoz kelganini
eshitdim. O‘sha ovoz dedi:

> “Xudoning maskani insonlar orasidadir!
> U endi odamlar orasida yashaydi,
> Ular Xudoning xalqi bo‘ladilar.
> Xudoning O‘zi ular bilan birga bo‘ladi.

4 Xudo ularning ko‘zidagi har bir tomchi yoshni artib qo‘yadi.
Endi o‘lim mavjud bo‘lmaydi,
Hech kim qayg‘urmaydi, yig‘lamaydi, azob chekmaydi.
Zero, avvalgilar o‘tib ketdi.”

5 Taxtda o‘tirgan Zot shunday dedi: “Mana, Men hammasini yangi qilib yaratyapman!” Keyin U menga dedi: “Bularni yozib qo‘y. Axir, bu so‘zlar ishonchli va to‘g‘ridir!” 6 So‘ng menga yana dedi: “Amalga oshdi! Ibtido va Intiho*, Boshi va Poyoni O‘zimman. Chanqaganga Men buloqdagi hayotbaxsh suvdan ichiraman. Buning evaziga u hech qanday to‘lov bermaydi. 7 G‘olib kelganlarga bu barakalar nasib bo‘ladi. Men uning Xudosi bo‘laman, u Mening o‘g‘lim bo‘ladi. 8 Ammo qo‘rqoq, imondan qaytgan, iflos, qotil, buzuq, jodugar, butparast va hamma yolg‘onchilarning qismati olov va oltingugurt bilan yonayotgan ko‘ldadir. Bu ikkinchi o‘limdir*.”

Yangi Quddus

9 Shu payt men oxirgi yetti baloga to‘ldirilgan yettita kosani ushlagan yetti farishtadan birini ko‘rdim. U oldimga kelib, menga dedi: “Bu yoqqa kel! Men senga kelinni, Qo‘zining xotinini ko‘rsataman.”

10 Muqaddas Ruh meni qamrab oldi va farishta meni baland bir tog‘ning cho‘qqisiga olib chiqdi. U menga samodan, Xudo huzuridan tushayotgan muqaddas shahar — Quddusni ko‘rsatdi. 11 Shahar Xudoning ulug‘vorligiga to‘lib, qimmatbaho javohirday, billur kabi musaffo bo‘lgan yashma toshiday yarqirardi. 12 Qalin va baland devor bilan o‘ralgan bu shaharning o‘n ikki darvozasi bor edi. Har bir darvozani bittadan farishta qo‘riqlardi. Darvozalarda Isroil xalqining o‘n ikki qabilasi nomlari yozilgandi. 13 Darvozalarning uchtasi sharqda, uchtasi shimolda, uchtasi janubda va uchtasi g‘arbda joylashgan edi. 14 Shahar devorlarining o‘n ikkita poydevori bor edi. Poydevorlarga Qo‘zining o‘n ikki havoriysi ismlari yozilgandi.

15 Menga gapirgan farishtaning qo‘lida oltin chizg‘ichi bor edi. Bu chizg‘ich shaharni, uning darvozalariyu devorini o‘lchash uchun edi. 16 Shahar to‘rtburchak shaklda bo‘lib, uzunligi bilan eni bir xil edi. Farishta chizg‘ichi bilan shaharni o‘lchadi, shaharning eni 12.000 o‘q otimi* ekan. Uning uzunligi bilan balandligi ham shunday edi. 17 So‘ng farishta shaharning devorini o‘lchadi. Devorning balandligi* 144 tirsak* chiqdi. Farishta insoniy o‘lchovdan foydalangandi. 18 Shahar devori yashma toshidan qurilgandi. Shaharning o‘zi esa shishaday tiniq, sof oltindan edi. 19 Shahar devorlarining poydevorlari turli qimmatbaho toshlar* bilan bezatilgan edi: birinchi poydevor yashmadan, ikkinchisi ko‘k yoqutdan, uchinchisi agatdan, to‘rtinchisi zumraddan edi. 20 Beshinchisi aqiq, oltinchisi la’l, yettinchisi xrizolit, sakkizinchisi berill, to‘qqizinchisi topaz, o‘ninchisi zabarjad, o‘n birinchisi lojuvard, o‘n ikkinchisi ametistdan edi. 21 O‘n ikki darvoza o‘n ikki marvariddan iborat edi. Har bir darvoza bitta marvariddan yasalgan edi. Shaharning shoh ko‘chasi sof oltindan bo‘lib, shishaday musaffo edi.

22 Men bu shaharda Ma’bad ko‘rmadim. Zotan, Qodir Xudo — Egamizning O‘zi va Qo‘zi shaharning Ma’badidir. 23 Shaharni yoritish uchun quyoshga yoki oyga ehtiyoj ham yo‘q. Chunki Xudoning ulug‘vorligi uni yoritadi, Qo‘zining O‘zi uning chirog‘i bo‘ladi. 24 Xalqlar shaharning nurida yurishadi. Yer yuzi shohlari unga o‘z boyliklarini keltirishadi. 25 Shahar darvozalari kun bo‘yi yopilmaydi, u yerda tun bo‘lmaydi. 26 Xalqlarning ulug‘vor xazinalari unga kiritiladi. 27 Lekin hech qanday harom narsa,

jirkanch ishlar qiladigan yoki yolg‘on gapiradigan bironta kishi unga kirmaydi. Faqat Qo‘zining hayot kitobida* yozilganlar kiradilar.

22–BOB

Hayot daryosi

1 Farishta menga billurday tiniq, hayotbaxsh suvlar daryosini ko‘rsatdi. Bu daryo
Xudoning va Qo‘zining taxtidan chiqib, 2 shahar ko‘chasi bo‘ylab oqayotgan edi.
Daryoning ikkala qirg‘og‘ida ham hayot daraxti bor edi. Bu daraxt yilda o‘n ikki marta,
har oy hosil beradi. Daraxtning barglari xalqlarga shifo baxsh etadi. 3 La’nat degan narsa
u yerda qolmaydi. Shaharda Xudoning va Qo‘zining taxti bo‘ladi, Xudoning qullari Unga
xizmat qiladi. 4 Ular Xudoning jamolini ko‘radi. Xudoning ismi ularning peshanalariga
yoziladi. 5 U yerda boshqa tun bo‘lmaydi. Chiroqqa ham, quyoshga ham ehtiyoj
qolmaydi. Axir, Egamiz Xudo ularga nur sochadi, ular esa to abad hukmronlik qiladi.

Iso kelyapti

6 Farishta menga shunday dedi: “Bu so‘zlar ishonchli va to‘g‘ridir. Payg‘ambarlarni
ruhlantirgan Egamiz Xudo O‘z qullari oldiga farishtasini yubordi. Toki farishta yaqin
orada yuz berishi muqarrar bo‘lgan voqealarni ularga bildirsin.”

7 Masih shunday demoqda:
“Men tezda kelaman!
Bu kitobning bashorat so‘zlariga
Amal qilganlar baxtlidir!”

8 Men, Yuhanno, bularni ko‘rdim va eshitdim. Bularni ko‘rib eshitganimdan keyin, bu
narsalarni menga ko‘rsatgan farishtaga sajda qilmoqchi bo‘lib, o‘zimni uning oyoqlariga
tashladim. 9 Ammo u menga dedi: “Zinhor bu ishni qilma! Men sening hamkoringman,
shuningdek, payg‘ambar birodarlaringning va bu kitobdagi so‘zlarga rioya
qiluvchilarning hamkoriman. Xudoga sajda qil!”
10 Keyin menga yana shunday dedi: “Bu kitobning bashorat so‘zlarini sir saqlama,
chunki vaqt yaqindir. 11 Badkirdorlar yomonligini qilaversin. Ifloslar iflosligini davom
ettiraversin. Solihlar esa to‘g‘ri ish qilishdan to‘xtamasin, muqaddas odamlar o‘zini
muqaddas saqlasin.”

12 Masih shunday demoqda:
“Men tez kelaman, mukofotim O‘zim bilan.
Har kimga qilmishiga yarashasini beraman.
13 Men Ibtido va Intihodirman*,
Birinchi va Oxirgi,
Boshi va Poyonidirman.”

14 Liboslarini yuvganlar* naqadar baxtlidir! Ular hayot daraxti mevasidan yeyishga,
shahar darvozalaridan kirishga haqli bo‘ladilar. 15 Hamma “ko‘ppaklar” — jodugarlar,
axloqi buzuqlar, qotillar, butparastlar, yolg‘onga ruju qo‘yib, hiyla ishlatganlar esa
tashqarida qoladilar.

16 “Men, Iso, O‘z farishtamni oldingizga yubordim,
Toki u bular to‘g‘risida jamoatlarimga shahodat bersin.
Men Dovud ildizidan chiqqan Zotdirman*, uning zurriyotiman,
Yorug‘ tong yulduziman.”

17 Ruh ham, kelin ham: “Kel!” — deb chorlayapti. Ushbu bashorat so‘zlarni tinglayotgan kishi* ham: “Kel!” — deb aytsin. Kim chanqagan bo‘lsa, kelsin. Kim xohlasa, hayotbaxsh suvdan tekin bahra olsin.

18 Bu kitobning bashorat so‘zlarini eshituvchi har bir kishini ogohlantiraman: kimda–kim bu so‘zlarga biror narsa qo‘shsa, Xudo ham o‘sha kishining jazosiga bu kitobda yozilgan balolarni qo‘shadi. 19 Kimda–kim bu kitobdagi bashorat so‘zlaridan birortasini chiqarib tashlasa, Xudo ham o‘sha kishini bu kitobda yozilgan hayot daraxtidan va muqaddas shahardan benasib qiladi*.

20 Bu gaplarning Shohidi: “Ha, Men tez kelaman!” — deb aytmoqda.
Omin! Yo Rabbimiz Iso, kelgin!

21 Rabbimiz Isoning inoyati barchangizga yor bo‘lsin*.

IZOHLAR

1:3 *Ushbu bashorat so‘zlarini ovoz chiqarib o‘qiyotgan odam…Uni tinglab…* — imonlilar birga yig‘ilganda mana shu kitobning ovoz chiqarib o‘qilishiga ishora. Qadimda ko‘pchilik o‘qishni bilmas edi.

1:4-5 *Asiya viloyatidagi imonlilarning yettita jamoati* — bu jamoatlar (shu bobning 11–oyatiga qarang) Rim imperiyasiga qarashli bo‘lgan Asiya viloyatida joylashgan edi. Asiya viloyati hozirgi Turkiyaning g‘arbida edi.

1:6 *Ota* — Xudoning unvoni. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi XUDONING NOMLARI iborasi ostida berilgan OTA so‘ziga qarang.

1:8 *Ibtido va Intiho* — yunoncha matnda *Alfa va Omega*, ya’ni yunon alifbesining birinchi va so‘nggi harflari.

1:9 *Patmos oroli* — Egey dengizidagi, Efes shahridan qariyb 100 kilometr janubi–g‘arbda, qoyalardan iborat kichkina orol.

1:10 *Yakshanba kuni* — yunoncha matnda *Rabbimizning kuni*, masihiylar bu kunni shunday deb atardilar, chunki Iso yakshanba kuni o‘likdan tirilgandi. Shu sababdan masihiylar yakshanba kuni Xudoga sajda qilish uchun birga yig‘iladilar.

1:10 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida Iso aytgan so‘zlarning boshiga quyidagi so‘zlar qo‘shimcha qilingan: *Men Ibtido va Intiho, Boshi va Poyonidirman*.

1:11 *Smirna* — hozirgi Turkiyaning Izmir shahri.

1:13 *inson qiyofasidagi bir Zot* — Iso Masihga ishora. Doniyor 7:13-14 ga qarang.

1:18 *o‘liklar diyori* — yahudiylar bu joyni, yer ostidagi tubsiz chuqurlik, marhumlar boradigan qorong‘i joy, deb tushunardi.

1:20 *yetti jamoatning farishtalari* — jamoatlarni qo‘riqlovchi farishtalarga ishora bo‘lishi mumkin (Havoriylar 12:15 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang). Yunonchadagi *farishta* so‘zi *elchi* ma’nosini ham beradi. Shu sababdan ba’zi olimlarning aytishlaricha, bu o‘rindagi yunoncha so‘z matnda aytib o‘tilgan yetti jamoatning yetakchilarini bildirishi mumkin. Yoki Yuhannoni ko‘rib kelish uchun va o‘sha jamoatlarga Iso Masihdan xabar yetkazish uchun yuborilgan yetti jamoatning elchilariga ishora bo‘lishi ham mumkin (2:1, 8, 12, 18, 3:1, 7, 14 ga qarang).

2:1 *jamoatining farishtasi* — 1:20 izohiga qarang.

2:6 *nikolaschilar* — o‘zlarini masihiymiz deb aytadigan mazhab. Chamasi, bu mazhab a’zolari masihiylarni butlarga keltirilgan qurbonlik go‘shtini yeyishga va fahsh–zino qilishga undagan (shu bobning 14-15–oyatlariga qarang). Ularning bunday qarashlari, masihiylar uchun hech qanday cheklovlar yo‘q, degan tushunchani suiiste’mol qilish natijasida kelib chiqqan bo‘lishi mumkin. Nikolaschilarning bu qarashlari Quddusdagi jamoat yetakchilari bergan ko‘rsatmalarga mutlaqo zid edi (Havoriylar 15:28-29 oyatlarga va Havoriylar 15:20 ning izohlariga qarang).

2:7 *hayot daraxti* — 22:2, 14 ga qarang.

2:8 *Smirna* — hozirgi Turkiyaning Izmir shahri.

2:9 *…chekkan azoblaringni…* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *ishlaringni, chekkan azoblaringni*.

2:9 *O‘zini Xudoning xalqi deb ataganlar…Ular Xudoning xalqi emas…* — yunoncha matnda *O‘zlarini yahudiy deb ataganlar…Ular yahudiy emas…*, o‘sha hududdagi masihiylarga qarshi chiqqan yahudiylarga ishora. Buning mohiyati shundaki, ular yahudiy bo‘lsalar ham, Iso Masihning Xushxabarini rad qilganlari uchun, Xudoning xalqi hisoblanmas edilar. Yana Yuhanno 8:34-37, Rimliklar 2:28-29 ga qarang.

2:10 *o‘n kun* — ehtimol, azob kunlari qisqa muddatda tugashini bildiradigan ramziy sondir.

2:11 *ikkinchi o‘lim* — do‘zaxga, Xudodan to abad ajralishga ishora (20:11-14, 21:8 ga qarang). Birinchi o‘lim insonning jismoniy o‘limidir.

2:13 *…qayerda yashayotganingni…* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *ishlaringni, qayerda yashayotganingni*.

2:13 *Shahringda shaytonning taxti joylashgan* — Pergamon Rim imperiyasining Asiya viloyatida joylashgan bo‘lib, imperatorga sajda qilish markazi edi. Shu sababdan bu oyatda, shahringda shaytonning taxti joylashgan, deb aytilgan bo‘lishi mumkin.

2:13 *Antipas* — an’anaga ko‘ra Asiyadagi birinchi masihiy shahid.

2:14 *Balom* — Mo‘ab va Midiyon xalqlari bilan qilgan hamkorligi uchun Balom Isroil xalqining dushmani hisoblangan edi (Sahroda 25:1-5, 16-18, 31:16, Yoshua 13:22, 24:9-10, Yahudo 11–oyatga qarang).

2:15 *nikolaschilar* — shu bobning 6–oyati izohiga qarang.

2:17 *pinhon saqlangan manna* — Zabur 77:24 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang. Yana Yuhanno 6:32-58 ga qarang.

2:17 *oq tosh* — ramziy ma’noni ifodalab, Qo‘zining to‘y ziyofatiga kirish huquqini beradigan taklifnoma (19:9 ga va Luqo 13:29 ga qarang).

2:20 *Izabel* — Eski Ahdda Isroil shohi Axabning butparast va yovuz xotini (3 Shohlar 16:30-31, 21:23-25, 4 Shohlar 9:22 ga qarang). Bu o‘rinda xulq–atvori Izabelnikiga o‘xshagan jamoatdagi bir ayol nazarda tutilgan bo‘lsa kerak. Ehtimol, bu ayol nikolaschilar mazhabining a’zosi bo‘lgandir (shu bobning 6–oyati izohiga qarang).

2:23 *izdoshlari* — yunoncha matnda *farzandlari*. “Farzandlari” deganda muallif Izabelning izdoshlarini nazarda tutgan bo‘lishi mumkin.

2:24 *«shaytonning sirlari»* — o‘sha Izabel deb atalgan ayol o‘rgatayotgan bir ta’limotga ishora bo‘lsa kerak. Ba’zi mazhablarning a’zolari, imonlilarning ruhiy hayoti ularning o‘z tanalarida qilgan ishlariga aloqador emas, deb o‘rgatardi. Ularning ta’limoti bo‘yicha, inoyatni to‘liqroq tushunish va yovuzni yengish uchun imonlilar shayton haqida chuqurroq o‘rganishlari, hatto butparastlarning udumlari va marosimlariga qo‘shilishlari kerak emish.

2:27 *Ular…parchalashadi* — Zabur 2:9 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

2:28 *tong yulduzi* — zuhra yulduziga ishora bo‘lishi mumkin. Bu yulduz g‘alaba va hukmronlik ramzi edi.

3:1 *jamoatining farishtasi* — 1:20 izohiga qarang.

3:2 *Imonini saqlab qolganlar* — shu bobning 4–oyatiga qarang.

3:5 *hayot kitobi* — Xudo O‘ziga tegishli bo‘lganlarning ismlarini yozib qo‘ygan kitob (20:11-15 ga qarang).

3:7 *Shoh Dovudning kaliti* — shoh Dovud avlodidan bo‘lgan Isoning Masih sifatidagi hokimiyatiga ishora. Iso bu hokimiyati bilan Unga ishonganlarning hammasiga Xudoning Shohligi darvozasini ochib berishga qodir.

3:9 *Ular o‘zlarini Xudoning xalqi deb ataydilar…ular Xudoning xalqi emaslar* — yunoncha matnda *Ular o‘zlarini yahudiy deb ataganlar…ular yahudiy emaslar* (2:9 ning ikkinchi izohiga qarang).

3:14 *Xudo yaratgan borliqning Asoschisi* — Yuhanno 1:3, Kolosaliklar 1:15-17 ga qarang.

3:14 *Omin* — bu o‘rinda unvon bo‘lib, ma’nosi *ishonchli, haq*.

3:15 *na sovuq va na issiqsan* — Laodikiya shahri o‘z suvlari bilan mashhur bo‘lgan Giyerapolis va Kolosa shaharlari orasida joylashgan edi. Giyerapolis shahri shimol tomonda, tibbiyotda ishlatilgan issiq buloq suvlari bilan mashhur bo‘lgan. Kolosa shahri esa janubi–sharq tomonda, o‘zining toza, muzday suvlari bilan mashhur bo‘lgan. Laodikiyaning o‘zida yaxshi suv manbai yo‘q edi. Iso Masih mana shularni nazarda tutib, Laodikiya shahridagi imonlilarni ogohlantiryapti. Ularning ruhiy hayoti na sovuq suvga, na issiq suvga o‘xshardi, bemaza ili–miliq suvday bo‘lib qolgandi. Ular atrofidagilarga yordam bermas edilar, boshqalarga foydalari tegmas edi.

3:18 *…oltinni…oq kiyim…ko‘zlaringga surtadigan malhamni…* — kinoyali tomoni shundaki, mana shu uch narsa Laodikiya aholisining faxri bo‘lgan. Ularning shahri o‘z boyligi, gazmol ishlab chiqarish sanoati va dunyoga keng tarqalgan ko‘zga shifo beradigan malhami bilan mashhur edi.

5:1 *o‘rama qog‘oz* — qadimgi paytlarda kitoblar o‘rama shaklda bo‘lgan.

5:5 *Yahudo qabilasidan bo‘lgan Sher — Dovud urug‘idan chiqqan Zot* — ya’ni Masih bo‘lgan Iso (Ibtido 49:9-10, Ishayo 11:1, 10 ga qarang).

5:14 *sajda qildilar* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *to abad barhayot Zotga sajda qildilar*.

6:6 *bir kunlik ish haqi* — yunoncha matnda *dinor*, Rim kumush tangasi. Bir dinor mardikorning bir kunlik ish haqi edi. Don tanqisligi sababli, shu qadar qimmat bo‘lishiga ishora.

6:6 *bir kosa…uch kosa* — yunoncha matnda *xiniks…uch xiniks*, taxminan 1 litrga va 3 litrga to‘g‘ri keladi.

7:9 *palma daraxti shoxlari* — hayot va najot ramzi bo‘lib, g‘olib lashkarboshiga yoki shohga hurmat–ehtirom ko‘rsatishda foydalanilgan.

8:11 *Erman* — ta’mi achchiq o‘simlik, kulfat va qayg‘u ramzi.

8:13 *burgut* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *farishta*.

9:1 *yulduz* — majoziy ma’noda farishtaga ishora (20:1 ga qarang).

9:3 *chigirtkalar* — haqiqiy chigirtkalar emas, chigirtkaga o‘xshagan bir mavjudot. Chigirtkalar ba’zan to‘da–to‘da bo‘lib kelib, dalalardagi hosilga katta zarar yetkazadigan

hasharot. Ular katta talafot timsoli edi, shuning uchun majoziy ma'noda katta lashkarga ishora qiladi.

9:4 *Xudoning muhri* — 7:1-8 ga qarang.

9:13 *oltin qurbongohning to'rtta shoxi* — qurbongohning tepasidagi to'rt burchagidan to'rtta shox bo'rtib chiqqan edi. Lug'atdagi QURBONGOH so'zi ostida berilgan TUTATQI QURBONGOHI iborasiga ishlangan rasmga qarang.

10:2 *o'rama qog'oz* — 5:1 izohiga qarang.

11:2 *muqaddas shahar* — ya'ni Quddus.

11:3 *...qanor kiyib...* — qanor dag'al qoramtir mato bo'lib, echki yoki tuya junidan to'qilgan va ko'pincha payg'ambarlar kiygan. Qanor kiyib olish umidsizlikni va qayg'uli holatni ifodalaydi. Ko'pincha bu harakat Xudodan kechirim so'rab ibodat qilish va Undan madad tilash bilan birgalikda amalga oshirilgan.

11:3 *1260 kun* — ya'ni 42 oy yoki uch yarim yil.

11:7 *tubsiz chuqurlikdan chiqqan bir maxluq* — 13:1-7 ga qarang.

11:8 *buyuk shahar* — Bobilga ishora. Vahiy kitobida Bobil nomi Masih va Uning Shohligiga qarshi chiqqan dushmanlarining timsolidir (14:8 izohiga qarang). Iso o'sha shaharda, ya'ni hozir shayton hukmronligi ostida bo'lgan bu dunyoda xochga mixlangan.

11:8 *Sado'm va Misr* — Sado'm o'z axloqsizligi bilan tanilgan shahar edi (Ibtido 19:4-13 ga qarang). Misr esa Xudoning xalqiga zulm o'tkazgan, ularni qul qilgan yurt edi (Chiqish 1:8-14, 3:7 ga qarang). Masihga va Uning Shohligiga qarshi chiqqan dushmanlarga mos keladigan nomlar.

11:17 *...hozir ham borsan* — yunoncha matndan. Ba'zi yunon qo'lyozmalarida *hozir ham borsan, kelajakda ham bor bo'lasan*.

11:19 *...Xudoning Ahd sandig'i ko'rindi* — bu sandiq Xudoning O'z xalqi bilan tuzgan ahdiga sodiq qolganini bildiradi. To'liqroq ma'lumotga ega bo'lish uchun lug'atdagi AHD so'ziga va AHD SANDIG'I iborasiga qarang.

12:5 *...barcha xalqlarni temir xivchin bilan boshqaradigan...* — Zabur 2:9 ga va o'sha oyatning izohiga qarang.

12:7 *Mikoyil* — bosh farishtalardan biri. Doniyor 10:12-13, 20-21, 12:1 ga qarang.

12:14 *uch yarim yil* — yunoncha matndan so'zma–so'z tarjimasi *bir muddat, muddatlar va yarim muddat* (ba'zan *muddat* so'zi bir yilga nisbatan ishlatilgan). Uch yarim yil 1260 kunga to'g'ri keladi (shu bobning 6–oyatiga qarang).

13:1 *Ajdarho...turdi* — yunoncha matndan. Ba'zi yunon qo'lyozmalarida *Men...turdim*.

13:8 *hayot kitobi* — 3:5 izohiga qarang.

13:8 *Ularning ismlari...dunyo yaratilishidan oldin yozilmagan* — yoki *Bu odamlarning ismlari dunyo yaratilishidan oldin bo'g'izlangan Qo'zining hayot kitobiga yozilmagan*. Ammo 17:8 oyatda bu odamlarning ismlari "dunyo yaratilishidan oldin hayot kitobiga yozilmagan" deb aytiladi. Shuning uchun ushbu oyatda 17:8 oyatga mos keladigan ma'no berilgan.

13:10 *Ba'zilar...qilichdan o'tkaziladi* — yunoncha matndan. Ba'zi yunon qo'lyozmalarida

Kimki boshqalarni asirlikka olsa, o‘zi asirlikka tushar. Kimki qilichdan o‘tkazsa, o‘zi qilichdan o‘tkazilar.

13:18 *Uning soni 666* — maxluqning nomini ifodalaydigan sonlar qo‘shilganda mana shu son kelib chiqsa kerak. Ibroniy va yunon alifbesining har bir harfi ma’lum bir sonni ifodalaydi. 6 soni muvaffaqiyatsizlik, qusur va yovuzlik timsoli edi (barkamollik timsoli bo‘lgan 7 sonidan bitta kam). Uchta 6 sonining yonma–yon kelishi muvaffaqiyatsizlik, qusur va yovuzlik ma’nosini g‘oyat kuchaytiradi.

14:1 *Sion tog‘i* — Quddusdagi Ma’bad qurilgan tepalik Sion tog‘i deb atalgan. Eski Ahddagi she’riy parchalarda va payg‘ambarlar bitiklarida Sion so‘zi ko‘pincha Quddus shahriga yoki Xudoning xalqiga nisbatan ishlatilgan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi SION so‘ziga qarang.

14:4 *…bokira qizlarday o‘zlarini pok saqlaganlar* — majoziy ma’noni ifodalab, ular Xudoga sodiq ekanliklarini, boshqa hech kimga va hech narsaga sajda qilmaganlarini ko‘rsatadi.

14:5 *…ular benuqsondirlar* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *Xudoning taxti oldida ular benuqsondirlar*.

14:8 *Bobil shahri* — Eski Ahd davrida jahondagi eng qudratli imperiyaning poytaxti bo‘lgan. Bu shahar mag‘rurligi (Doniyor 4:27 ga qarang) va axloqsizligi bilan nom chiqargan edi. U Xudoning xalqiga dushman bo‘lgan (miloddan oldingi 586 yilda Bobil shohi Navuxadnazar Quddusni vayron qilib, aholining asosiy qismini Bobilga surgun qilgan, 4 Shohlar 25:1-21 ga qarang). Ushbu kitob yozilgan paytda imonlilar Bobil nomini ba’zan Rimga nisbatan ishlatar edilar. Rim o‘sha davrda hukmron bo‘lgan imperiyaning poytaxti bo‘lib, butparastlik va axloqsizlik o‘chog‘i edi. Vahiy kitobida Bobil nomi Masih va Uning Shohligiga qarshi chiqqan dushmanlarining timsoli bo‘lib, hozirgi paytda shaytonning hukmronligi ostida bo‘lgan bu dunyoni bildiradi. Yana 17:1-6, 19:2 ga qarang.

14:14 *inson qiyofasidagi bir Zot* — Iso Masihga ishora. Doniyor 7:13-14 ga qarang.

14:19 *chuqur* — qadimgi paytlarda odamlar uzumni qoyatoshga o‘yilgan chuqurga yoki tuproqdan qazilgan, tubiga va atrofiga zich qilib tosh terilgan chuqurga solib, sharbatini siqib olish uchun oyoqlari bilan ezardilar. Sharbat o‘sha chuqurdan yana boshqa bir chuqurga oqib tushardi. Uzum ezish Muqaddas Kitobda ko‘pincha Xudoning odamlar ustidan chiqaradigan hukmiga nisbatan ko‘chma ma’noda ishlatilgan.

14:20 *1600 o‘q otimi* — yunoncha matnda *1600 stadion*, taxminan 300 kilometrga to‘g‘ri keladi. Chamasi, 1600 soni ramziy ma’noda ishlatilgan bo‘lib, Xudoning hukmi dunyoning to‘rt burchiga yetib borishini ko‘rsatadi.

15:2 *nomini bildirgan son* — 13:18 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

15:3 *Musoning va Qo‘zining qo‘shig‘ini* — bu qo‘shiq Chiqish 15:1-18 dagi qo‘shiqning ancha qisqargan varianti.

15:5 *Ma’badning Eng muqaddas xonasi* — Ma’badning eng ichkari xonasi. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi ENG MUQADDAS XONA iborasiga qarang.

16:13 *soxta payg‘ambar* — 13:11-17 da aytib o‘tilgan ikkinchi maxluq nazarda tutilgan.

16:19 *Bobil shahri* — 14:8 izohiga qarang.

16:21 *ikki pud* — yunoncha matnda *bir talant*, taxminan 34 kiloga to‘g‘ri keladi.

17:1 *Fohisha timsolidagi bu buyuk shahar…* — Bobilga ishora (14:8 izohiga qarang). 21:9 da xuddi shu farishta Yuhannoga Qo‘zining kelinchagini ko‘rsatadi. Kelinchak Bobil va shayton shohligiga zid bo‘lgan Quddus va Xudo Shohligining timsolidir.

17:1 *…serob suvlar bo‘yida joylashgan* — Yeremiyo 51:13 ga qarang. Qadimiy Bobil shahri Furot daryosi bo‘yida joylashgan bo‘lib, murakkab va keng tarmoqli sug‘orish tizimiga ega edi. Bu sug‘orish tizimi shahar atrofidagi hududlarni suv bilan ta’minlagan. Bobilning sug‘orish tizimi bu o‘rinda uning butun dunyoga ko‘rsatadigan ta’sirining timsolidir (shu bobning 2, 15–oyatlariga qarang).

17:3 *maxluq* — 13:1-7 ga qarang.

17:8 *hayot kitobi* — 3:5 izohiga qarang.

18:2 *Bobil* — 14:8 izohiga qarang.

18:13 *mirra* — ma’lum bir daraxtlarning qotgan yelimidan tayyorlangan qimmatbaho xushbo‘y modda.

19:3 *Bobil* — 14:8 izohiga qarang.

19:15 *…temir xivchin bilan ularni boshqaradi* — Zabur 2:9 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

19:15 *chuqur* — 14:19 izohiga qarang.

19:20 *soxta payg‘ambar* — 13:11-17 da aytib o‘tilgan ikkinchi maxluq nazarda tutilgan.

20:4 *Xudo…oqlagan edi* — yoki *Xudo taxtlarda o‘tirganlarga hukm etish huquqini bergan edi* yoxud *Xudo taxtlarda o‘tirganlarga hukmronlik huquqini bergan edi*. Ammo Doniyor 7:22 ga ham qarang.

20:5-6 *Ikkinchi o‘lim* — shu bobning 11-14–oyatlariga va 14–oyatning izohiga qarang.

20:7 *Go‘g va Mago‘g* — ramziy nomlar. Bu nomlar oxirgi marta Xudoning xalqiga hujum qilish uchun yig‘iladigan dunyo xalqlariga ishora qiladi.

20:8 *Xudo yaxshi ko‘radigan shahar* — ya’ni Quddus.

20:10 *soxta payg‘ambar* — 13:11-17 da aytib o‘tilgan ikkinchi maxluq nazarda tutilgan.

20:12 *Hayot kitobi* — Xudo O‘ziga tegishli bo‘lganlarning ismlarini yozib qo‘ygan kitob.

20:13 *o‘liklar diyori* — yahudiylar bu joyni, yer ostidagi tubsiz chuqurlik, marhumlar boradigan qorong‘i joy, deb tushunardi.

20:14 *ikkinchi o‘lim* — do‘zaxga, Xudodan to abad ajralishga ishora. Birinchi o‘lim insonning jismoniy o‘limidir.

21:6 *Ibtido va Intiho* — yunoncha matnda *Alfa va Omega*, ya’ni yunon alifbesining birinchi va so‘nggi harflari.

21:8 *ikkinchi o‘lim* — do‘zaxga, Xudodan to abad ajralishga ishora. Birinchi o‘lim insonning jismoniy o‘limidir.

21:16 *12.000 o‘q otimi* — yunoncha matnda *12.000 stadion*, taxminan 2250 kilometrga to‘g‘ri keladi. Bu shahar katta kub shaklida tasvirlangan, bu timsol uning kattaligiga,

barkamolligiga va chiroyiga ishora qiladi.

21:17 *balandligi* — yoki *qalinligi*.

21:17 *144 tirsak* — taxminan 65 metrga to‘g‘ri keladi.

21:19 *turli qimmatbaho toshlar* — yunoncha matnda aytib o‘tilgan ba’zi qimmatbaho toshlarning turi bahsli.

21:27 *hayot kitobi* — 3:5 izohiga qarang.

22:13 *Ibtido va Intiho* — yunoncha matnda *Alfa va Omega*, ya’ni yunon alifbesining birinchi va so‘nggi harflari.

22:14 *Liboslarini yuvganlar* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *uning amrlariga bo‘ysunganlar*.

22:16 *Dovud ildizidan chiqqan Zot* — Ishayo 11:1 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

22:17 *Ushbu bashorat so‘zlarni tinglayotgan kishi…* — 1:3 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

22:19 *…o‘sha kishini bu kitobda yozilgan hayot daraxtidan va muqaddas shahardan benasib qiladi* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *o‘sha kishini hayot kitobidan, muqaddas shahardan va mazkur kitobda yozilgan narsalardan benasib qiladi*.

22:21 Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida quyidagi so‘z oyatga qo‘shimcha qilingan: *omin*.

IZOHLARNING TUZILISHI
VA ULARDAN FOYDALANISH TARTIBI

Izohlar kitobxonga Muqaddas Kitob matnini yaxshiroq tushunishga yordam berish maqsadida tuzilgan. Izohlarda qadimgi Yaqin Sharq va unga qo‘shni davlatlarning tarixiga, madaniyatiga, geografik joylashuviga, sanalarga va vaqt tizimiga oid ma’lumotlar kiritilgan, Muqaddas Kitobning muayyan matni mazmuniga mos keladigan ayrim oyatlar manzili berilgan. Shuningdek, qadimgi o‘lchov birliklarining zamonaviy ekvivalentlari ham izohlangan. Muqaddas Kitobda ko‘p uchraydigan muhim so‘zlar yoki nomlar haqidagi ma’lumot esa kitobning lug‘at qismida o‘z aksini topgan. Ayrim hollarda bunday so‘zlar yoki nomlar uchun izoh qisqa berilgan bo‘lib, to‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atga qarang, deb yozilgan.

Muqaddas Kitobning asl matni qadimgi ibroniy va yunon tillarida yozilgani uchun, ba’zan matndagi oyatlarning ma’nosini tushunish murakkablik tug‘diradi. Ma’nosi noaniq bo‘lgan ana shunday oyat uchraganda va olimlar o‘sha oyatni qanday tarjima qilish kerakligi haqida bir to‘xtamga kela olmagan hollarda ham oyatga izoh berilgan. Tarjimonlar guruhi bunday oyatlarni diqqat bilan o‘rganib chiqib, mazmuni kontekstga mos keladigan tarjimadan foydalanganlar. Ayrim hollarda matndagi ma’lum bir so‘zning yoki iboraning qo‘shimcha ma’nolari yoki boshqa varianti izohda ko‘rsatib o‘tilgan. O‘zbek tilidagi mazkur tarjima uchun asos bo‘lgan Eski va Yangi Ahdning asl matnlari haqida qo‘shimcha ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi IBRONIYCHA MATN va YUNONCHA MATN iboralariga qarang. O‘sha o‘rinlarda Eski va Yangi Ahd matnining tarixi haqida muhim ma’lumotlar berilgan bo‘lib, olimlar asl matn ma’nosini tushunishlari uchun alohida ahamiyatga ega bo‘lgan qaysi qadimiy qo‘lyozmalardan foydalanganlari haqida yozilgan.

Izoh berilgan so‘zlar yoki iboralar matnda yulduzcha (*) bilan belgilangan. Har bir kitob tarkibidagi izohlanayotgan so‘z va iboralar mazkur qismda o‘sha kitob nomi ostida keltirilgan. Izohlarning aksariyati quyidagi namuna asosida berilgan:

7:20 *o‘n besh tirsak* — taxminan 7 metrga to‘g‘ri keladi.

7:20 — bu raqamlar izohlanayotgan so‘z yoki iboraning manzilini, ya’ni birinchi raqam bobini, ikkinchi raqam oyatini bildiradi. Masalan, 7–bob, 20–oyat.

o‘n besh tirsak — tiredan oldingi kursiv shaklida berilgan bu singari so‘z yoki iboralar Muqaddas Kitob matnidan olingan bo‘lib, izohlanadigan qismni tashkil qiladi.

taxminan 7 metrga to‘g‘ri keladi — izohda tiredan keyin kelgan bu singari jumlalar izoh matnini tashkil qiladi.

Muqaddas Kitob tarkibidagi har bir kitobning kirish qismidagi izohlarga bob va oyat raqami qo‘yilmagan. Bunday izohlar o‘sha kitobga berilgan izohlar ro‘yxatining boshida keladi.

Zabur kitobining ayrim sarlavhalari sanolar boshida kelgani uchun, bosh sarlavhalarga berilgan izohlarda faqat sanoning tartib raqami ko‘rsatilgan. Bunday sarlavhalarning oyat raqami yo‘q (misol uchun, 31–sanoga berilgan izohga qarang).

Muqaddas Kitob tarkibiga kirgan quyidagi beshta qisqa kitob: Obodiyo, Filimo‘n, 2 Yuhanno, 3 Yuhanno va Yahudo kitoblari boblarga bo‘linmagani bois, bu kitoblarga

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

berilgan izohlarda faqat oyat raqami koʻrsatilgan.

Yangi Ahd muallifi Eski Ahddan iqtibos keltirganda, yulduzcha (*) iqtibosdan keyin qoʻyilgan. Bunday hollarda iqtibos izoh boshida berilmagan, balki iqtibos Eski Ahdning qaysi oyatlaridan olingani koʻrsatib oʻtilgan. Misol uchun, Matto kitobiga berilgan quyidagi namunaga e'tibor bering:

2:6 Mixo 5:2 ga qarang.

Yangi Ahdda Eski Ahddan keltirilgan iqtiboslar ibroniy tilidagi Eski Ahdning asl matnidan tarjima qilinmagan, balki Yangi Ahd muallifining yunon tilida yozilgan soʻzlaridan olingan. Yangi Ahd mualliflari Eski Ahddan iqtiboslar keltirganlarida, ba'zan ularni soʻzma–soʻz emas, balki faqat kerakli qismlarini olib, matn ma'nosiga mos ravishda ishlatganlar. Shu bois Yangi Ahddagi ba'zi iqtiboslar Eski Ahd matnidagidan biroz farq qiladi.

Quyida izohlardagi raqamlarga hamda koʻp takrorlanadigan soʻzlar va iboralarga tushuntirishlar berilgan. Izohlarni toʻgʻri tushunishingiz uchun quyidagi namunalarni diqqat bilan oʻqib chiqing:

6:1 — ma'lum bir kitobning 6–bobini va 1–oyatini bildiradi. Agar raqamlar boshida kitob nomi berilmagan boʻlsa, izoh bilan ta'minlanayotgan kitob nazarda tutilgan. Agar raqamlar boshida ma'lum bir kitob nomi berilgan boʻlsa, shu kitobning bobi va oyati nazarda tutilgan. Misol uchun, Hikmatlar 1:7 deganda "Sulaymonning hikmatlari" kitobining 1–bobi, 7–oyati nazarda tutiladi.

6:1 ga qarang — izoh bilan ta'minlanayotgan kitobning 6–bobi 1–oyatiga qarang degan ma'no anglashiladi.

6:1, 5, 9, 18:4-7 ga va Chiqish 2:9 ga qarang — izoh bilan ta'minlanayotgan kitobning 6–bobi 1, 5 va 9–oyatlariga, 18–bobning 4–oyatidan 7–oyatigacha va Chiqish kitobining 2–bobi 9–oyatiga qarang, degan ma'no anglashiladi. Eslatma: bob raqamidan keyin doimo ikki nuqta (:) qoʻyiladi yoki "–bob" tarzida yoziladi. Shuning uchun yuqoridagi 6:1, 5, 9 misolida 1, 5 va 9 sonlari oyat raqamini bildiradi.

24:7 izohiga qarang — izoh bilan ta'minlanayotgan kitobning 24–bobi 7–oyatiga berilgan izohga qarang, degan ma'no anglashiladi.

12:8 ga va oʻsha oyatning izohiga qarang — izoh bilan ta'minlanayotgan kitobning 12–bobi 8–oyatiga va oʻsha oyatga berilgan izohga qarang, degan ma'no anglashiladi.

16:7-14 oyatlarga va 16:14 izohiga qarang — izoh bilan ta'minlanayotgan kitobning 16–bobi 7–oyatidan 14–oyatigacha va shu kitobning 16–bobi 14–oyatiga berilgan izohga qarang, degan ma'no anglashiladi.

toʻliqroq ma'lumotga ega boʻlish uchun lugʻatdagi ISROIL soʻziga qarang — bu kabi izohlarda Muqaddas Kitobga ilova qilingan lugʻat nazarda tutilgan.

ibroniycha matn — Eski Ahdning asl matni boʻlib, oʻzbek tiliga qilingan mazkur tarjima ushbu ibroniycha matnga asoslangan. Toʻliqroq ma'lumotga ega boʻlish uchun lugʻatdagi IBRONIYCHA MATN iborasiga qarang.

oramiycha matn — Eski Ahdning ayrim qismlari oramiy tilida yozilgani bois, oramiycha matn oʻsha qismlarning asl matni hisoblanadi. Oʻzbek tiliga qilingan mazkur qismlar tarjimasi ushbu oramiycha matnga asoslangan. Toʻliqroq ma'lumotga ega boʻlish uchun lugʻatdagi ORAMIYCHA soʻziga va ORAMIYCHA MATN iborasiga qarang.

ibroniy qo‘lyozmalari, qumron qo‘lyozmalari, qadimiy yunoncha tarjima, qadimiy suryoniycha tarjima, qadimiy lotincha tarjima — Eski Ahdning qadimda ko‘chirilgan nusxalari va tarjimalari. Ibroniycha asl matnning ma’nosi noaniq bo‘lgan o‘rinlarda olimlar matn ma’nosini to‘liq tushunishlari uchun ushbu qo‘lyozmalar va tarjimalardan foydalanadilar. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi IBRONIYCHA MATN iborasi ostida berilgan IBRONIY QO‘LYOZMALARI, QUMRON QO‘LYOZMALARI va QADIMIY TARJIMALAR iboralariga qarang.

yunoncha matn — Yangi Ahdning asl matni bo‘lib, o‘zbek tiliga qilingan mazkur tarjima ushbu yunoncha matnga asoslangan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi YUNONCHA MATN iborasiga qarang.

yunoncha qo‘lyozmalar — Yangi Ahdning qadimda ko‘chirilgan nusxalari. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi YUNONCHA MATN ostida berilgan YUNON QO‘LYOZMALARI iborasiga qarang.

…ming–ming avlodlariga… — **yoki** *minginchi avlodiga* **yoxud** *minglariga* — bunday hollarda “yoki” va “yoxud” so‘zlari asl matn ma’nosini ikki yoki undan ham ko‘proq ma’nolarda tushunish mumkinligini bildiradi. Kitobxon mazkur tarjimani boshqa tarjimalar bilan solishtirganda, ba’zi bir oyatlarning ma’nosi boshqacha ekanligini payqashi mumkin. Tarjimadagi farqlar, odatda, quyidagi sabablarga ko‘ra paydo bo‘lgan:

1) Asl matndagi so‘z yoki ibora bir necha ma’noga ega, bu holda tarjimada so‘zning yoki iboraning ma’nosi matn kontekstiga ko‘ra tanlanadi.

2) Asl matnda ba’zi arxaik so‘zlar yoki iboralar kam uchragani bois, olimlar ularning ma’nosini aniq bila olmaydilar.

3) Asl matnda ayrim oyatlarning ma’nosi noaniq, ehtimol, kotiblar matnni ko‘chirganlarida xatoga yo‘l qo‘yganlari bunga sabab bo‘lishi mumkin. Bunday holda olimlar matnni boshqa qo‘lyozmalar bilan solishtirib, uning ma’nosini aniqlashga harakat qiladilar. Shunga qaramay, ayrim hollarda erishilgan natija yana bahsli bo‘lib qolaveradi. Ba’zan bunday ma’lumot izohlarda berilgan bo‘lib, kitobxon muammoni tushunishiga yordam beradi. Ko‘p hollarda esa buning imkoni yo‘q, chunki muammo nihoyatda uzun va batafsil izohni talab qiladi. Kitobxonlarimiz Muqaddas Kitobni chuqur o‘rganmoqchi bo‘lsalar, bunday savollarga qoniqarli javob topishlari uchun Muqaddas Kitob bo‘yicha tuzilgan sharhlarga, ya’ni kommentariylarga murojaat qilishlari mumkin.

“…Bayt–Xagon shahriga qarab qochdi… — **yoki** *bog‘dagi uyning yo‘lidan qochdi.”* — bu holda “yoki” ayiruvchi bog‘lovchisining vazifasi shundan iboratki, asl matndagi biror so‘z yoki ibora atoqli otni yoki sifatdosh oborotini bildiradi. Matnga yuqoridagiday izoh berilgan bo‘lsa, demak, olimlar bu masalada bitta yechimga kelmaganlar, ya’ni asl matnda atoqli ot ishlatilganmi yoki sifatdosh oboroti nazarda tutilganmi — aniq emas.

…bo‘lishi mumkin, …bo‘lsa kerak, bahsli, chamasi, ehtimol — izohlarda bu kabi so‘zlar bor bo‘lsa, demak, olimlar asl matndagi biror masalada bir to‘xtamga kela olmaganlar. Umid qilamizki, bunday o‘rinlarda kitobxonlar Muqaddas Kitobni diqqat bilan o‘qiydilar va boshqalarning bu boradagi qarashlariga hurmat bilan yondashadilar.

ibroniycha matnda bu ismning boshqa varianti *Yoram* — bu kabi izohlar asl matndagi ism boshqacha yozilganini bildiradi. Qadimda odamlarning ismlarini va joylar nomlarini turlicha talaffuz qilishgani bois, ular bir xil yozilmagan. Ba’zan ismlarni va nomlarni qisqartirib aytishgan. Tushunmovchilikning oldini olish uchun, mazkur

tarjimada har bir odamning ismi yoki joyning nomi matnning boshqa o‘rinlaridagi ism yoki nom bilan bir xil qilib berilgan.

ibroniycha matnda *Isroil*, Yoqubning yana bir ismi — bu kabi izohlar biron odamning yoki joyning asl matnda boshqa nomi ham borligini bildiradi. Ba’zan odamlarning va joylarning ikkita nomi bo‘lgan. Tushunmovchiliklarning oldini olish uchun, odatda, mazkur tarjimada o‘sha nomlarning bittasi ishlatilgan.

bu o‘rinda Pavlus Ibtido 3:17-19 ni nazarda tutgan — bu kabi izohlar Yangi Ahd matni uchun berilgan bo‘lib, muallif Eski Ahdning qaysi oyatlari yoki parchasiga ishora qilayotganini ko‘rsatadi. Bunday o‘rinlarda muallif iqtibos keltirmagan, u faqat Eski Ahd oyatlaridagi ayrim kalit so‘zlar va iboralardan foydalangan yoki fikrini ta’kidlash uchun Eski Ahddagi oyatlarning umumiy mazmunini aytib o‘tgan, xolos.

Muallif bu o‘rinda Ishayo 40:3 ning qadimiy yunoncha tarjimasidan foydalangan — bu kabi izohlar Yangi Ahd matni uchun berilgan bo‘lib, muallif yoki so‘zlovchi iqtibosni Eski Ahdning qadimgi yunon tiliga qilingan tarjimasidan keltirganini bildiradi. Bunday izohlar Eski Ahdning yunon tilidagi tarjimasi ibroniy tilidagi asl matndan biroz farq qilishini ko‘rsatadi. Ilk jamoatdagi masihiylar, asosan, yunon tiliga tarjima qilingan Eski Ahd matnidan foydalanganlar, chunki o‘sha davrda ko‘pchilik ibroniy tilini bilmagan va asl matnni o‘qiy olmagan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi YUNON TILI VA MADANIYATI iborasiga va IBRONIYCHA MATN iborasi ostida berilgan QADIMIY TARJIMALAR iborasiga qarang.

LUG‘AT

Bu lug‘atda Muqaddas Kitobda ko‘p uchraydigan muhim yoki notanish so‘zlar va iboralar berilgan. Ko‘pincha lug‘atda biron so‘z yoki iboraning ma’nosi bilan bir qatorda, o‘sha davrga xos tarixiy va madaniy jarayonga oid ma’lumotlar ham berilgan. Bu so‘zlar va iboralarga berilgan sharhlardan keyin keladigan izohlarda Muqaddas Kitobdagi oyatlarning manzili ko‘rsatilgan. Bu oyatlar kitobxonga Muqaddas Kitobda bayon etilgan ta’limotlarni chuqurroq o‘rganishga yordam beradi. Kitobxon ayrim buyumlarning tuzilishi va shaklini ko‘z oldiga keltirib, tasavvur qila olishi uchun, lug‘atda o‘sha buyumlarning rasmlari keltirilgan.

Ayrim hollarda umumiy bir so‘z ostida bir nechta so‘zlar va ularning sharhlari berilgan. Masalan, BAYRAMLAR, XUDONING NOMLARI, QURBONLIK. Bu umumiy so‘zlar ostidagi so‘zlar lug‘atdagi ro‘yxatda ham topiladi. Ammo bu so‘zning sharhini topish uchun kitobxon umumiy so‘z ostida berilgan so‘zning sharhiga qarashi kerak. Masalan, lug‘atdagi AYB QURBONLIGI iborasi uchun “QURBONLIK so‘ziga qarang” deb yozilgan.

Lug‘atda yana sinonim so‘zlar ham uchraydi. Bunday holda bir so‘zning ma’nosi ikkinchi so‘zning sharhida berilib, lug‘atda kitobxonga o‘sha ikkinchi sinonim so‘zning shahriga qarashga ko‘rsatma berilgan. Masalan, lug‘atdagi MALAK so‘zi uchun “FARISHTA so‘ziga qarang”, lug‘atdagi SANDIQ so‘zi uchun “AHD SANDIG‘I iborasiga qarang” deb yozilgan.

ABADIY HAYOT

Muqaddas Kitobda abadiy hayot nafaqat vaqtning davomiyligini, balki hayotning mazmunini, ya’ni Xudo bilan uyg‘unlikda yashashni, Uning marhamati va barakalaridan bahramand bo‘lishni bildiradi. Eski Ahdning ba’zi parchalarida solihlar Xudo bilan abadiy yashashlari haqida yozilgan, ayrim hollardagina o‘liklarning tirilishi haqida aytib o‘tilgan[1]. Yangi Ahdda abadiy hayot nima ekanligi kengroq ochib berilgan. Insonning tanasi o‘lsa ham, ruhi o‘lmaydi[2]. Iso Masihga va Uni yuborgan Xudoga ishongan inson abadiy hayotga ega bo‘ladi[3]. Bunday inson uchun abadiy hayot shu dunyoda yashayotganidaYoq boshlanadi[4]. U o‘lsa ham oxiratda tiriladi va undan keyin hech qachon o‘lmaydi[5]. Qiyomat kuni Xudo solihlarga abadiy hayotni mukofot qilib beradi[6], ular jannatda yashab, bu dunyodagi barcha yovuzligu qabihliklardan ozod bo‘ladilar[7]. Fosiqlarga esa abadiy jazo beriladi, ular to abad Xudodan ajraladilar[8].

[1] Zabur 15:9-11, 22:6, 132:3, Ayub 19:25-26, Ishayo 26:19, Doniyor 12:2, Luqo 20:37-38 [2] Luqo 16:22-23, 23:42-43, 2 Korinfliklar 4:16-18, 5:1-2, 6-8, Filippiliklar 1:21-23 [3] Yuhanno 3:15-16, 36, 5:24, 6:40, 10:27-28, 1 Yuhanno 5:13 [4] Efesliklar 2:4-6 [5] 1 Korinfliklar 15:42-44, 50-54 [6] Matto 5:12, 25:34, 46, 1 Butrus 1:4, Filippiliklar 3:13-14, Ibroniylar 12:22-24 [7] Vahiy 21:1-4, 22:1-5 [8] Matto 25:41, 46, Yuhanno 5:28-29, Vahiy 20:11-15

AHD

Ikki kishi yoki ikki guruh orasida tuzilgan bitim yoki kelishuv. Qadimgi paytlarda odatda ahd tuzilganda, uni tasdiqlash uchun ikkala tomon ont ichardi, so‘ngra qurbonlik qilinardi. Muqaddas Kitobda bayon qilinishicha, Xudo bir necha marta ahd tuzgan. Har bir ahdda berilgan va’dalarni va qo‘yilgan shartlarni Xudoning O‘zi belgilagan. Jumladan, Xudo Ibrohim bilan ahd tuzib, Ibrohimga va uning avlodiga abadiy baraka berishni va’da qilgan[1]. Mana shu ahd belgisi sifatida Ibrohim va uning avlodi sunnat qilinishi kerak bo‘lgan[2]. Xudo keyinchalik Muso payg‘ambar orqali Ibrohimning avlodi, ya’ni Isroil xalqi bilan ahd tuzadi[3]. O‘sha ahdda Xudoning amrlari va qonunlari batafsil berilgan. Bu amrlarga va qonunlarga rioya qilgan insonlarga Xudo: “Men sizlarni O‘zimning xalqim qilaman, sizlarning Xudoyingiz bo‘laman”, deb maxsus va’da bergan. Ammo bu amrlarni va qonunlarni buzgan odamlarni Xudo jazolagan. Xudoning O‘z xalqi Isroil bilan bo‘lgan munosabati mana shu ahdga asoslangani bois, Eski Ahdda bayon qilingan aksariyat voqealar va Isroil xalqining tarixi shu munosabatlar haqida hikoya qiladi. Isroil xalqi Xudoga qayta–qayta bevafolik qilgani uchun, Uning amrlariga bo‘ysunmagani uchun o‘z vatanidan surgun qilingan[4]. Biroq Xudo: “Shunday kunlar keladiki, Men Isroil xalqi bilan yangi ahd tuzaman”, deb O‘z payg‘ambarlari

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

orqali va’da bergan[5].

Xudo yangi ahdni butun insoniyat bilan Iso Masih orqali tuzdi. Iso Masih butun odamzodning gunohini O‘z bo‘yniga olib, xochdagi o‘limi orqali yangi ahdni kuchga kiritdi[6]. Iso O‘zini qurbon qilgani va dunyoni Xudo bilan yarashtirgani Yangi Ahdning asosiy mavzusidir. Endi har bir inson, millatidan qat’i nazar, Iso Masihga ishonsa va gunohlaridan tavba qilsa, uning gunohlari kechiriladi, bu inson Xudoning xalqiga tegishli bo‘ladi.

[1] Ibtido 15:1-21, 17:1-27 [2] Ibtido 17:9-14 [3] Chiqish 19:1-20:21, 24:1-18 [4] 4 Shohlar 17:5-23, 2 Solnomalar 36:13-21, Doniyor 9:3-14 [5] Yeremiyo 31:31-34, 32:39-40, Hizqiyol 11:19-20, 36:26-27 [6] Matto 26:27-28, Ibroniylar 8:6-13, 9:11-17

AHD SANDIG‘I

Usti va ichi oltin bilan qoplangan yog‘och sandiq[1]. Ahd sandig‘ida ikkita tosh lavha saqlanardi. Xudo bu tosh lavhalarni Sinay tog‘ida Musoga Isroil xalqi uchun bergan edi. Tosh lavhalarga o‘nta amr yozilgan bo‘lib, bu amrlar Xudo bilan Uning xalqi o‘rtasida tuzilgan ahd edi. Shu sababdan bu sandiq ko‘pincha Ahd sandig‘i deb aytilgan. Ahd sandig‘ining qopqog‘i ustida karub degan mavjudotning ikkita haykali bor edi. Karublar bir–biriga yuzma–yuz turgan bo‘lib, ularning qanotlari qopqoqning ustini berkitib turardi. Ahd sandig‘i — Xudo O‘z xalqi orasida ekanligining ramzi edi. Isroil xalqi sahroda kezib yurganda Ahd sandig‘i Muqaddas chodirning Eng muqaddas xonasida saqlanar edi. Keyinchalik Ahd sandig‘i Quddusdagi Ma’badning Eng muqaddas xonasiga qo‘yilgan.

[1] Chiqish 37:1-9



AHD SANDIG‘INING QOPQOG‘I

Ahd sandig‘ining qopqog‘i toza oltindan yasalgan edi. Qopqoq ustida karub degan mavjudotning ikkita haykali bor edi. Karublar bir–biriga yuzma–yuz turgan bo‘lib, ularning qanotlari qopqoqning ustini berkitib turardi[1]. Oliy ruhoniy bir yilda bir marta — Poklanish kunida maxsus qurbonliklar keltirib, qopqoq ustidagi ikki karub orasiga qurbonlik qonidan sachratar edi. Bundan maqsad Eng muqaddas xonani Isroil xalqining nopokliklaridan, itoatsizliklaridan va gunohlaridan poklash edi[2].

[1] Chiqish 37:6-9 [2] Levilar 16–bob

AHMOQ, NODON

Eski Ahdda “ahmoq” va “nodon” so‘zlari axloqsiz odamlarga ishora qiladi. Bunday odamlar Xudoni sevmaydilar va Unga ishonmaydilar[1]. Ularda solih yashashga undaydigan donolik yo‘q, shuning uchun ular halokatu o‘limga yetaklaydigan qarorlar chiqaradi[2].

[1] Zabur 13:1, 52:2, Hikmatlar 1:7 [2] Hikmatlar 1:20-33, 19:3, Voiz 7:17

AMOR XALQI

Isroil xalqi Kan’on yurtini egallamasdan oldin o‘sha yerda yashagan xalqlarning orasidagi eng katta va kuchli xalqlardan biri. O‘sha paytda Kan’on yurtida yashagan xalqlarning hammasiga nisbatan ham “Amor xalqi” degan ibora qo‘llanilgan. Shuning uchun ushbu tarjimaning ba’zi joylarida “Amor xalqlari” deb ham yuritilgan[1]. Yana KAN’ON XALQI, KAN’ON XALQLARI, KAN’ONDAGI XALQLAR iboralariga qarang.


[1] Misol uchun, Ibtido 15:16, Yoshua 10:5, 2 Shohlar 21:2 ga qarang.

ARAVA

BRONZADAN YASALGAN ARAVALAR yoki JANG ARAVASI iboralariga qarang.

ARFA

Torli musiqa asbobi.



ASIRLIK

SURGUN so‘ziga qarang.

AYB QURBONLIGI

QURBONLIK so‘ziga qarang.

ASHERA

Ashera Kan’ondagi xalqlar sajda qilgan hosildorlik xudosi bo‘lib, ayol qiyofasida tasavvur qilingan. Asheraning tasvirlari baland ustun shaklida bo‘lib, yog‘ochdan yasalgan edi. Uning erkak jufti Baal edi.

ASHTARET

Ashtaret Kan’ondagi xalqlar sajda qilgan hosildorlik va urush xudosi bo‘lib, ayol qiyofasida tasavvur qilingan.

BAAL

Baal Kan’ondagi xalqlar sajda qilgan hosildorlik xudosi bo‘lib, erkak qiyofasida tasavvur qilingan. Uning ayol jufti Ashera bo‘lgan. Kan’onliklar, Baal eng kuchli xudo, deb ishonganlar. Baal so‘zi *xo‘jayin* degan ma’noni bildirib, ba’zan erkaklar ismiga qo‘shib ishlatilgan. Ayrim hollarda shahar yoki joy nomlariga ham qo‘shilgan. Ehtimol, Baal so‘zi qo‘shib nomlangan o‘sha yerlarda Baalning tasviri bo‘lgan yoki Baalga alohida usul bilan sajda qilingan.

BANDARGOH

Kemalar to‘xtaydigan, kemalarga yuk ortiladigan va ulardan yuk tushiriladigan joy, ya’ni port. Port shaharlardagi savdogarlar kemalarga ham, karvonlarga ham tijorat mollarini yetkazib berardilar. Muqaddas Kitobda Finikiyaning bir nechta port shaharlari, jumladan, Tir va Sidon haqida aytib o‘tilgan. O‘rta Osiyodan o‘tgan Buyuk ipak yo‘lining ba’zi tarmoqlari g‘arbda o‘sha Finikiya shaharlarigacha borardi. Kemasozlik va baliqchilik port shaharlarning iqtisodida muhim o‘rin tutgan. Dengiz bo‘yida joylashgan bu port shaharlar aholisi farovon yashagan.

BARHAYOT XUDO

XUDONING NOMLARI iborasiga qarang.

BAYRAMLAR

Muqaddas Kitobda Isroil xalqi nishonlagan bir nechta muhim bayramlar aytib o‘tilgan. Quyida bu bayramlarning har biri haqida ma’lumot beriladi:

FISIH ZIYOFATI

Bu ziyofat ibroniy kalendarining birinchi oyi — Abib oyining o‘n to‘rtinchi kuni kechqurun nishonlangan (Abib oyi Nison oyi deb ham ataladi). Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy martning o‘rtasidan boshlanadi. Xudo Isroil xalqini Misrdagi qullikdan qanday qilib ozod qilganini ular Fisih ziyofatida xotirlaganlar. Har bir xonadon bir qo‘zi yoki uloqchani qurbonlik qilib, Fisih ziyofati munosabati bilan taom tayyorlagan. Xonadon a’zolari qurbonlik taomini birga tanovul qilishgan. Bu taomga qo‘shib taxir o‘tlar va xamirturushsiz non ham yeyilgan. Fisih ziyofatining ibroniycha nomi — *Pesax*. Ziyofatning “Fisih” degan o‘zbekcha nomi *Pesax*dan olingan. Chiqish 12:1-13, 21-51, Levilar 23:5, Sahroda 9:1-14, Qonunlar 16:1-7 ga qarang.

XAMIRTURUSHSIZ NON BAYRAMI

Bu bayram ibroniy kalendarining birinchi oyi — Abib oyining 15-21 kunlarida, yetti kun davomida nishonlangan (Abib oyi Nison oyi deb ham ataladi). Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy martning o‘rtasidan boshlanadi. Isroil xalqi o‘sha yetti kun davomida Xudo ularni Misrdan shoshilinch olib chiqqanini xotirlaganlar. Odamlar uylaridagi bor xamirturushni olib chiqib tashlaganlar. Yetti kun davomida xamirturushli non yeyilmagan. Odamlar bayramning birinchi va yettinchi kunlarida muqaddas yig‘in o‘tkazganlar, Tavrotda buyurilgan qurbonliklarni keltirganlar. Xamirturushsiz non bayramining ibroniycha nomi — *Matsot*. Bu bayram Fisih ziyofatidan bir kun keyin boshlangan. Shuning uchun Yangi Ahddagi ba’zi parchalarda Fisih ziyofati va Xamirturushsiz non bayrami “Fisih bayrami” deb nomlangan[1]. Chiqish 12:14-20, 13:3-10, 23:15, 34:18, Levilar 23:6-8, Sahroda 28:17-25, Qonunlar 16:3-4, 8 ga qarang.

[1] Misol uchun, Luqo 22:1 ga qarang.

HOSIL BAYRAMI

Bu bayram ibroniy kalendarining uchinchi oyi — Shavon oyining oltinchi kunida nishonlangan. Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy mayning o‘rtasidan boshlanadi. Bu bayram bug‘doy o‘rimi boshlanganda nishonlanardi. Bu kun Fisih ziyofatidan keyin sakkizinchi haftaning birinchi kuniga — Fisih ziyofatidan keyingi elliginchi kunga to‘g‘ri keladi. Isroil xalqi bu kunda Xudo hosilni barakali qilganini nishonlagan. Ular har xil nazr va qurbonliklar keltirganlar, jumladan, yangi bug‘doy hosilining donini nazr qilganlar. Bu bayramning ibroniycha nomi “Shavuot”, ya’ni “haftalar” deganidir. Shuning uchun bu bayram “Haftalar bayrami” deb ham atalgan. Yangi Ahdda bu bayramning yunoncha nomi “Pentekost”, ya’ni

elliginchi, deb atalgan. Chiqish 23:16, 34:22, Levilar 23:15-21, Sahroda 28:26-31, Qonunlar 16:9-12 ga qarang.

KARNAY BAYRAMI

Bu bayram ibroniy kalendarining yettinchi oyi — Tishri oyining birinchi kunida nishonlangan (Tishri oyi Itanim oyi deb ham ataladi). Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy sentabrning o‘rtasidan boshlanadi. Karnay bayrami kuni Isroil xalqi dam olib, muqaddas yig‘in o‘tkazgan. Bu yig‘inda burg‘ular chalingan, Tavrotda buyurilgan qurbonliklar keltirilgan. Levilar 23:23-25, Sahroda 29:1-6 ga qarang.

POKLANISH KUNI

Bu bayram ibroniy kalendarining yettinchi oyi — Tishri oyining o‘ninchi kunida nishonlangan (Tishri oyi Itanim oyi deb ham ataladi). Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy sentabrning o‘rtasidan boshlanadi. Poklanish kuni Isroil xalqi dam olib, ro‘za tutgan. Ruhoniylar o‘zlarini, xalqni, Muqaddas chodirni, keyinchalik Ma’badni va qurbongohni poklash uchun Tavrotda buyurilgan qurbonliklarni keltirganlar. Oliy ruhoniy esa Eng muqaddas xonaga kirib, tutatqi tutatardi, Ahd sandig‘ining qopqog‘iga va Sandiqning oldiga qurbonlik qonini sachratardi. “Poklanish kuni” bayramining ibroniycha nomi — *Yom Kippur*. Levilar 16–bob, 23:26-32, Sahroda 29:7-11 va RUHONIY so‘zi ostida berilgan OLIY RUHONIY iborasiga qarang.

CHAYLA BAYRAMI

Bu bayram ibroniy kalendarining yettinchi oyi — Tishri oyining 15-21 kunlarida nishonlangan (Tishri oyi Itanim oyi deb ham ataladi). Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy sentabrning o‘rtasidan boshlanadi. Bu paytda, kuz yomg‘iri boshlanmasdan oldin, hosil yig‘ib olingan bo‘lardi. Isroil xalqi Misrdan chiqqandan keyin sahro kezib, chaylalarda yashaganini yetti kun davomida xotirlagan. Shuningdek, ular Kan’on yurtidagi hosilni Xudo barakali qilganini ham nishonlashganlar, Tavrotda buyurilgan qurbonliklarni keltirganlar. Ular yetti kun davomida dalalardagi chaylaga o‘xshash chaylalarda yashaganlar. Chayla bayramining ibroniycha nomi — *Sukkot*. Bu bayram “Yig‘im–terim bayrami” deb ham atalgan. Chiqish 23:16, 34:22, Levilar 23:33-36, 39-43, Sahroda 29:12-39, Qonunlar 16:13-15, Zakariyo 14:16-19 ga qarang.

PURIM BAYRAMI

Bu bayram ibroniy kalendarining o‘n ikkinchi oyi — Adar oyining 14-15 kunlarida nishonlangan. Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy fevralning o‘rtasidan boshlanadi. Purim bayramini Fors shohi Axashverash hukmronligi davrida malika Ester va uning amakisi Mardoxay joriy qilganlar. Ikki kun nishonlanadigan bu bayram davomida yahudiylar qanday qilib Xudo Isroil xalqini qirilib ketishdan saqlaganini xotirlaganlar. Bu bayramda odamlar xursandchilik qilganlar, ziyofatlar uyushtirganlar va bir–birlariga sovg‘alar berganlar. Bu bayramning nomi akkad–bobil tilidagi *pur*, ya’ni “qur’a” so‘zidan olingan. Ester 9:20-32 ga qarang.

YANGI OY SHODIYONASI

Har oyning boshida nishonlanadigan bayram. Bu bayram Isroil xalqi amal qilgan qamariya hisobi bo‘yicha belgilangan. Ruhoniylar har oyning birinchi kunida mana shu bayram uchun Tavrotda buyurilgan qurbonliklarni keltirardilar[1]. Shuningdek, bu bayramda odamlar maxsus taomni tanovul qilardilar. Udumga muvofiq bu taomni faqatgina poklangan odamlar tanovul qilishlari mumkin edi[2]. Oyning birinchi kuni tabarruk hisoblanib, odamlar dam olishardi[3].

[1] Sahroda 28:11-15 [2] 1 Shohlar 20:5, 24-26 [3] Amos 8:5

BASHAN

Yassi tepaliklardan va o‘rmon bilan qoplangan qirlardan iborat o‘lka. Bu o‘lka Jalila dengizi va Iordan daryosining sharq tomonida joylashgan. Bashan Gilad o‘lkasining shimol tomonida bo‘lib, semiz mol–qo‘ylariyu a’lo sifatli donlari bilan mashhur edi.

BIRODAR, BIRODARLAR

Muqaddas Kitobda odatda bu so‘z o‘zaro yaqin munosabatda bo‘lgan odamlar orasida qo‘llanilgan, ayrim hollardagina tug‘ishgan aka–ukalarga nisbatan ishlatilgan. Eski Ahdda ham, Yangi Ahdda ham bu so‘z bir qabilaga yoki bir xalqqa mansub bo‘lgan odamlar o‘rtasida ko‘p ishlatilgan[1]. Yangi Ahdda, ayniqsa maktublarda bu so‘z Iso Masihga ishongan barcha millatdagi odamlarga nisbatan ishlatilgan[2]. Iso Masihning O‘zi ham shogirdlarini, birodarlarim, deb atagan[3]. Bu so‘z yana qo‘shnilarga, do‘stlarga, qardosh xalq vakillariga, hatto begona odamlarga nisbatan ham qo‘llanilgan[4]. Shuningdek, erkak va

ayollardan iborat bo‘lgan guruhlarga ham “birodarlar”, deb murojaat qilinardi. Muqaddas Kitobda aytib o‘tilgan xalqlarning madaniyatida erkaklar asosiy o‘rin egallagan. Madaniyatning bu jihati Muqaddas Kitob yozilgan qadimiy ibroniy va yunon tillari grammatikasida ham aniq ko‘rinib turadi. Mazkur tarjimada ibroniycha va yunoncha matndagi ma’noni saqlab qolish uchun “birodar, birodarlar” so‘zi ishlatilgan.

[1] Chiqish 2:11, Qonunlar 1:16, Hakamlar 18:14, 20:7, Naximiyo 5:1-10, Zabur 21:23, Hizqiyol 11:25, Havoriylar 2:29, 22:1 [2] Matto 25:40, 45, Havoriylar 1:15-17, 15:23, Yoqub 1:2, Filippiliklar 3:1, Filimo‘n 1:1, 7, 16, Ibroniylar 2:11, Vahiy 12:10 [3] Matto 28:10, Yuhanno 20:17 [4] Ibtido 19:7, 29:4, Qonunlar 2:8, 1 Shohlar 30:23, Matto 7:3-5

BOBIL

Qadimgi qudratli shohlik. Uning poytaxti Bobil hozirgi janubiy Iroqda joylashgan edi. Miloddan oldingi 586 yilda Bobil lashkari Yahudoni, ya’ni janubiy shohlikni bosib olgan[1] va juda ko‘p odamlarni Bobilga asir qilib olib ketgan edi[2]. Keyinchalik Bobil yurti Fors imperiyasi hukmronligi ostida bo‘lganda, ayrim yahudiylar Yahudo yurtiga qaytib kelganlar. Qolgan yahudiylar esa Bobilda yashab qolaverganlar. Bobil shahri ko‘p yillar davomida yahudiylarning diniy ta’lim markazi bo‘lgan edi.

[1] YAHUDO so‘ziga qarang. [2] 4 Shohlar 25:1-12

BOSH RUHONIYLAR

Yangi Ahd davrida bosh ruhoniylar guruhi oliy ruhoniydan, sobiq oliy ruhoniylardan va Horun avlodidan kelib chiqqan nufuzli oilalar a’zolaridan tashkil topgan edi. Bosh ruhoniylar, oliy ruhoniy singari, bu nufuzli oilalar orasidan tanlanardi. Bosh ruhoniylar jamiyatning boshqa e’tiborli odamlari qatorida Oliy kengash[1] a’zolari edilar. Oliy kengash yahudiylarning siyosiy va diniy uyushmasi edi.

[1] OLIY KENGASH iborasiga qarang.

BRONZA QURBONGOH

QURBONGOH so‘ziga qarang.

BRONZADAN YASALGAN ARAVALAR

Shoh Sulaymon qurdirgan Ma’bad hovlisidagi o‘nta katta arava. Har bir aravaning ustida katta tog‘ora bo‘lib, bu tog‘oralarda suv saqlanardi[1]. Qurbonlik qilinadigan hayvonlarning ichak–chovoqlari, kalla–pochasi va boshqa qismlari kuydirilishdan oldin mana shu tog‘oralardagi suv bilan yuvilardi[2]. Zarurat bo‘lganda aravalar Ma’bad hovlisida u yerdan–bu yerga ko‘chirilardi.


[1] 3 Shohlar 7:27-39 [2] 2 Solnomalar 4:6



BRONZADAN YASALGAN HOVUZ

Bu hovuz katta qozon shaklida bo‘lib, bronzadan qilingan o‘n ikkita ho‘kiz ustiga o‘rnashtirilgan edi. Hovuz shoh Sulaymon qurdirgan Ma’bad hovlisidagi bronzadan yasalgan qurbongoh yonida turar edi. Bu hovuzga taxminan 44.000 litr suv sig‘ardi[1]. Hovuzdagi suvni ruhoniylar yuvinish uchun ishlatardilar[2].


[1] 3 Shohlar 7:23-26 [2] 2 Solnomalar 4:6



BURG‘U

Qo‘chqor shoxidan yasalgan cholg‘u asbobi. Qadimda bu asbob dushman bostirib kelayotganidan xabar berish uchun, jangga da’vat qilish uchun[1], shuningdek, Xudoni ulug‘lash uchun chalingan[2].

[1] Yoshua 6:4,19, Yeremiyo 4:5, 6:1 [2] Zabur 80:4, 97:6, 150:3




BUTSIMON TOSH

Tik qilib o‘rnatilgan uzunchoq tosh. Kan’on xalqlari bu toshlarni o‘z xudolari, jumladan, xudo Baal deb bilib, ularga topinar edilar[1]. Bunday toshlar tepaliklar ustiga, yashil daraxtlar ostiga[2] va sajdagohlarning ichkarisiga o‘rnatilardi[3]. Xudo Isroil xalqiga, butsimon toshlarni o‘rnatmang, ularga sajda qilmang, deb amr bergan[4]. Shuningdek, butsimon toshlarni sindirib tashlashni buyurgan[5].

[1] BAAL so‘ziga qarang. [2] 4 Shohlar 17:10 [3] 4 Shohlar 10:27 [4] Levilar 26:1 [5] Chiqish 23:24



BO‘YINTURUQ



DAFN MAROSIMI

Qadimda Isroil xalqi va boshqa ba’zi xalqlarning udumi bo‘yicha, marhum qat’iy qoidalarga rioya qilingan holda dafn etilardi. Marhumning dafn etilmasligi u uchun nihoyatda og‘ir isnod hisoblanib, o‘ta sharmandalik edi[1]. Odatda jasad dafn etilishidan oldin yuvilib, unga xushbo‘y hidli moylar surtilardi[2]. Shundan keyin marhumni xushbo‘y hidli ziravorlar bilan birga zig‘ir matoga kafanlab, dafnga tayyorlashardi[3]. Azadorlar va yollangan yig‘ichilar quyosh botmasdan oldin marhumni qabristonga olib borib, uni oilasiga qarashli qabrga qo‘yishardi[4]. Qabr odatda qoyaga o‘yib yasalardi[5]. Qabr og‘zi diametri taxminan bir metr bo‘lgan dumaloq tosh bilan yopib qo‘yilardi. Bu tosh juda og‘ir bo‘lgani uchun, bir nechta odam o‘sha toshni yumalatib, qabr og‘zini yopishardi[6]. Dafn marosimidan keyin bir yil o‘tgach, qabr og‘zini ochishardi va marhumning suyaklarini toshdan yasalgan qutiga solishardi. So‘ngra bu qutini qabrning ichida o‘yilgan tokchaga qo‘yishardi. Xochda o‘lgan jinoyatchilarning jasadi odatda ommaviy qabrga tashlanardi va ular uchun oshkora aza tutish man etilgan edi.

[1] 3 Shohlar 14:11-13, 21:23-24, Yeremiyo 7:33, Ishayo 14:18-20 [2] Mark 14:3, 8, 16:1, Havoriylar 9:37 [3] Matto 27:59, Yuhanno 11:44 [4] Ibtido 47:30, Amos 5:16, Luqo 7:12 [5] Matto 27:60 [6] Mark 16:3-4, Yuhanno 11:38

DON NAZRI

NAZR so‘ziga qarang.

DOVUD QAL’ASI

Bu qal’a Quddusning qadimgi qismi bo‘lib, Sion tepaligida joylashgan edi. Yobus xalqi shu joyning tub aholisi edi. Dovud qal’ani ulardan tortib olib, u yerda yashay boshladi. Shu bois bu qal’a “Dovud qal’asi” deb nom oldi[1].

[1] 2 Shohlar 5:6-9, 1 Solnomalar 11:4-8

EDOM, EDOM XALQI, EDOMLIKLAR

Bu xalq Yoqubning akasi Esovdan[1] kelib chiqqan[2]. Edom xalqi O‘lik dengizning janubi va janubi–sharqidagi taqir Seir[3] tog‘larida yashagan. Bu xalq Isroil xalqining dushmani bo‘lib kelgan[4]. Dovud hukmronligi davrida Isroil xalqi Edomliklarni bosib oldi[5]. Ammo Dovud hukmronligidan keyin Edom xalqi ahyon–ahyonda Isroilga qarshi isyon ko‘tarib turgan va nihoyat, o‘z mustaqilligiga erishgan edi[6].

[1] Ibtido 25:25, 30 ga va Ibtido 25:25 ning birinchi izohiga qarang. [2] Ibtido 36:8-9 [3] Ibtido 25:25 ga va o‘sha oyatning ikkinchi izohiga qarang. [4] Sahroda 20:14-21 [5] 2 Shohlar 8:13-14 [6] 3 Shohlar 11:14-22, 4 Shohlar 8:20-22

EFOD

Ibroniycha so‘z bo‘lib, oliy ruhoniy kiyadigan maxsus kiyimga nisbatan ishlatilgan[1]. Efodga taqilgan ko‘krakpech xaltasida Urim va Tummim degan muqaddas narsalar saqlangan. Ayrim hollarda ruhoniylar Xudoning xohishini bilish uchun Urim va Tummimdan foydalanishgan[2].

Eski Ahdning ba’zi oyatlarida efod so‘zi ruhoniylar kiyadigan libosga nisbatan ishlatilgan bo‘lib, bu libos zig‘ir matodan tikilardi[3]. Hakamlar kitobida bu so‘z butni yoki odamlar fol ochishda foydalangan buyumni bildirgan[4].

[1] Chiqish 28:6-14 ga va RUHONIY so‘zi ostida berilgan OLIY RUHONIY iborasiga qarang.
[2] Chiqish 28:30, 1 Shohlar 23:9-12 [3] 1 Shohlar 2:18, 22:18, 2 Shohlar 6:14 ga va o‘sha oyatlarning izohlariga qarang. [4] Hakamlar 8:27 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

EFRAYIM

Yoqub o‘g‘li Yusuf Misrda ikki o‘g‘il ko‘rgan bo‘lib, kattasi Manashe, kenjasi Efrayim edi. Efrayim va Manashe qabilalari Yusufning shu ikki o‘g‘lidan kelib chiqqan. Efrayim kenja o‘g‘il bo‘lsa ham, Yoqub uni Manashedan yuqori qo‘yib, duo qilgan[1].

Shoh Sulaymon vafotidan keyin shimoldagi o‘nta qabila janubdagi Yahudo va Benyamin qabilalaridan ajralib chiqdi[2]. Bu o‘nta qabila alohida davlatni tashkil qilib, Isroil shohligi[3] deb nom oldi. Bu davlatning poytaxti Samariya bo‘ldi. Shimoldagi qabilalar orasida Efrayim eng katta va nufuzli qabila bo‘lgani bois, Eski Ahdning ba’zi o‘rinlarida Efrayim degan nom o‘nta qabilaga va ular tashkil qilgan Isroil shohligiga nisbatan ishlatilgan.

[1] Ibtido 48:17-20 [2] 3 Shohlar 11:26-12:24
[3] shimoliy shohlik iborasi bilan ham ma’lum

EGAM RABBIY, EGAMIZ RABBIY

XUDONING NOMLARI iborasiga qarang.

EGAM XUDO, EGAMIZ XUDO…

XUDONING NOMLARI iborasiga qarang.

EGAMIZDAN QO‘RQISH

XUDODAN QO‘RQISH iborasiga qarang.

EGAMIZNING FARISHTASI

Sodir bo‘ladigan muhim bir voqea–hodisa to‘g‘risida odamlarga xabar berish uchun, ularni himoya qilish uchun yoki maxsus bir topshiriqni bajarish uchun Egamiz tomonidan yuborilgan farishta[1]. Muqaddas Kitobda bayon qilinishicha, ba’zan Xudoning O‘zi Egamizning farishtasi qiyofasida zohir bo‘lgan[2].

[1] FARISHTA so‘ziga qarang. [2] Misol uchun, Chiqish 3:1-5, Hakamlar 6:11-24 ga qarang.

EGAMIZNING RUHI

XUDONING RUHI iborasiga qarang.

EGAMNING UYI, EGAMIZNING UYI

Bu iboralar Muqaddas chodirga, keyinchalik esa Ma’badga ishora qilgan. MUQADDAS CHODIR iborasiga va MA’BAD so‘ziga qarang.

EGAM, EGAMIZ…

XUDONING NOMLARI iborasiga qarang.

ENG MUQADDAS XONA

Muqaddas chodirning, keyinchalik esa Ma’badning ichkari kichikroq xonasi[1]. Bu xonada Ahd sandig‘i turar edi. Sulaymon qurdirgan Ma’badning Eng muqaddas xonasida ikkita karubning katta haykali ham bor edi. Eng muqaddas xonani Muqaddas xonadan katta parda ajratib turardi[2]. Tavrotga ko‘ra, faqat oliy ruhoniy bir yilda bir marta — Poklanish kuni Eng muqaddas xonaga kirishi mumkin edi[3]. Ibroniylarga maktubda va Vahiy kitobida samoviy Chodirning Eng muqaddas xonasi haqida aytib o‘tilgan. Iso Masih inson qo‘li bilan qurilmagan bu mukammal Chodirda oliy ruhoniy bo‘lib xizmat qilyapti[4].

[1] Lug‘atdan keyin ilova qilingan “Rasmlar va loyihalar” bo‘limiga qarang. [2] ICHKI PARDA iborasiga qarang. [3] BAYRAMLAR so‘zi ostida berilgan POKLANISH KUNI iborasiga qarang.
[4] Ibroniylar 8:1-2, 9:11-12, 24, Vahiy 15:5

ESKI AHD

Muqaddas Kitobning birinchi qismi bo‘lib, o‘ttiz to‘qqizta kitobdan iborat. Odatda yahudiylar, Eski Ahd to‘plami uch qismdan iborat, deb aytadilar. Bu uch qism quyidagilardir: Tavrot (Musoning qonuni degan nom bilan ham yuritiladi), Payg‘ambarlar bitiklari (uning tarkibiga ba’zi tarixiy kitoblar ham kirgan) va Bitiklar (Zabur bu qismning birinchi kitobidir). Eski Ahd qadimgi ibroniy tilida, ba’zi qismlari esa oramiy tilida bo‘lib, miloddan oldingi o‘n beshinchi asrning ikkinchi yarmidan boshlab, taxminan ming yil davomida yozilgan. Eski Ahdning asosiy mavzusi Xudoning Isroil xalqi bilan bo‘lgan munosabatidir. Bu munosabat Xudoning Muso orqali Isroil xalqi bilan tuzgan ahdiga asoslangan.

Keyinchalik Xudo O‘z xalqi bilan Iso Masih orqali yangi ahd tuzdi[1]. Shu sababga ko‘ra, avvalgi, ya’ni Muso orqali tuzilgan ahd “eski ahd” deb hisoblanadi[2]. Milodiy uchinchi asrdan boshlab, masihiylar ibroniycha Muqaddas bitiklarni “Eski Ahd” deb ataydigan bo‘ldilar. Iso Masih Muqaddas bitiklarni mukammal bilgan va O‘z ta’limotida ulardan ko‘p iqtiboslar keltirgan.

[1] 1 Korinfliklar 11:25, Ibroniylar 8:6-13
[2] 2 Korinfliklar 3:14, Ibroniylar 8:6

ESHIK KESAKISI

Eshik o‘rnatilgan chorcho‘p.



FALASTIN

Falastin degan nom Filist xalqining[1] nomidan kelib chiqqan. Miloddan oldingi beshinchi asrdan boshlab, “Falastin” nomi yunon va lotin tillarida Filist xalqining yeridan ancha katta bo‘lgan hududga nisbatan ishlatilgan. Bu hudud O‘rta yer dengizidan boshlab to Jalila ko‘lining, Iordan daryosining va O‘lik dengizning sharqidagi qirli yerlargacha cho‘zilgan. Bu hududning shimol tomonida Lubnon tog‘lari, janub tomonida esa Nagav cho‘li bor edi. Muqaddas Kitobda bu yerlarning aksariyat qismiga nisbatan Kan’on nomi ishlatilgan. Bu yerlar Isroil xalqi tomonidan bosib olingandan keyin “Isroil yurti” degan nom bilan tanilgan.

Tarix davomida Falastinning chegaralari aniq belgilanmagan. Miloddan oldingi 332 yilda bu hudud Iskandar Zulqarnayn tomonidan bosib olingan. Miloddan oldingi 63 yilda esa Rim imperiyasining tarkibiga kirgan. Milodiy 135 yilda yahudiylarning Rimga qarshi ko‘targan isyoni bostirilgan va Rim hukumati Yahudiya va Suriya viloyatlarini birlashtirib, u yerga “Suriya–Falastina” deb nom bergan. Keyinchalik Suriya bir nechta qismga bo‘linib ketgan va Suriya–Falastinaning hududi kichrayib, bu nom faqatgina oldingi Yahudiya viloyatining hududini bildiradigan bo‘ldi. Yettinchi asrda arablar bu hududni bosib olganlaridan keyin ham, shu hudud rasman “Falastin” nomi bilan atalavergan. Zamonaviy davrlarda Falastinning chegaralari bir necha marta o‘zgargan.

[1] FILIST XALQI, FILISTIYA iborasiga qarang.

FARISHTA

Xudo yaratgan[1] va Uning xizmatida bo‘lgan samoviy mavjudotlar[2]. Ular Xudo bilan samoda istiqomat qiladi[3]. Farishtalar inson bo‘lmasalar–da, inson qiyofasida ham zohir bo‘lganlar[4]. Muqaddas Kitobga ko‘ra, farishtalar Xudoning xabarlarini insonlarga yetkazganlar, yuz beradigan voqealarni va vahiylarni tushuntirib berganlar. Isroil xalqiga Muso orqali qonun berilganda ham farishtalar ishtirok etishgan[5]. Ayrim hollarda farishtalar odamlarni xavf–xatardan asraganlar[6]. Muqaddas Kitobda ikkita farishtaning ismi aytib o‘tilgan. Bular — Mikoyil[7] va Jabroil[8].

Muqaddas Kitobdagi bir qator oyatlarda bayon qilinishicha, farishtalarning ba’zilari to‘g‘ri yo‘ldan ozib, yovuz bo‘lib qolganlar, ular shayton boshchiligida Xudoga va Uning xalqiga qarshilik qilganlar[9]. Muqaddas Kitobda aytib o‘tilgan yovuz ruhlar va jinlar mana shu gunohkor farishtalarga ishora qilsa kerak.

[1] Kolosaliklar 1:16 [2] Zabur 102:20-21, Ibroniylar 1:7, 14 [3] Matto 18:10-11, Ibroniylar 12:22 [4] Ibtido 18:1-2, Ibroniylar 13:2 [5] Qonunlar 33:2, Havoriylar 7:53 [6] Ibtido 19:1-23, Havoriylar 12:6-11, 27:23-24 [7] Doniyor 10:13, Yahudo 9, Vahiy 12:7 [8] Doniyor 8:16, 9:21, Luqo 1:19, 26-27 [9] Ayub 1:6-7, Matto 12:22-25, 25:41, 2 Butrus 2:4, Yahudo 6, Efesliklar 2:2, Vahiy 12:7-9

FARZIY

Iso Masih davrida yahudiylarning muhim bir diniy mazhabi. Bu nom ibroniychada “alohida ajratilgan” degan ma’noni bildiradigan so‘zdan kelib chiqqan. Farziylar Tavrot qonunlariga qat’iy rioya qilardilar, ayni paytda og‘zaki ravishda tarqalgan urf–odatlarga hamda poklanish udumlariga ham izchil amal qilardilar. Farziylar mazhabiga faqatgina bir necha ming kishi kirgan bo‘lib, umumiy aholining kichkina bir guruhini tashkil qilardi. Farziylar xalq orasida obro‘–e’tiborga ega edilar. Ulardan ba’zilari Oliy kengash a’zolari edilar. Ayrim farziylar Iso Masihga ishondilar, ko‘plari esa Isoga va Uning ta’limotiga qarshi chiqdilar.

FILIST XALQI, FILISTIYA

Qadimgi davrlarda Filistiyaning aholisi Filist xalqi deb yuritilardi. Filistiyaning hududi Sinay yarim orolidan shimoli–sharqda, O‘rta yer dengizi qirg‘og‘i bo‘yida joylashgan edi. Filistlarning ajdodlari Krit orolidan kelib chiqqan bo‘lishi mumkin. Filistlar Kan’on yurtidagi xalqlardan ajralib turar, Isroil xalqi ba’zan ularni “sunnatsizlar”, deb aytardi. Chunki aksariyat

mahalliy xalqlar orasida keng tarqalgan sunnat qilish odati Filistlar orasida yo‘q edi. Filist xalqi quyidagi beshta shahar–davlatni — G‘azo, Ashqalon, Ashdod, Gat va Exronni barpo qilgan edi. Miloddan oldingi o‘n ikkinchi asrda Filistlar o‘z yerlarini kengaytirish niyatida Kan’on yurtini g‘arb tomondan bosib olishni boshladilar. Ayni paytda Isroil xalqi Kan’on yurtiga sharq tomondan bostirib kelgan, buning oqibatida ikkala xalq o‘rtasida ziddiyat kelib chiqdi. Shunday qilib, shoh Dovud Filist xalqini mag‘lub qilgunga qadar, ular Isroil xalqining ashaddiy dushmani bo‘lib qoldi[1].

[1] 2 Shohlar 8:1, 1 Solnomalar 18:1

FINIKIYA

Isroildan shimolda O‘rta yer dengizi bo‘yida joylashgan hudud. Bu hudud Tir, Sidon, Arvod va Gabol[1] shahar–davlatlari tomonidan nazorat qilingan. Hozirgi Livan mamlakatining O‘rta yer dengizi bo‘yidagi hududi qadimgi Finikiya hududiga to‘g‘ri keladi.

[1] Bibl nomi bilan ham ma’lum

FIR’AVN

Qadimgi Misr shohlarining unvoni.

FISIH BAYRAMI

Yangi Ahdda “Fisih bayrami” nomi ostida Fisih ziyofati va undan keyin yetti kun davomida nishonlanadigan “Xamirturushsiz non bayrami” nazarda tutilgan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun BAYRAMLAR so‘zi ostida berilgan FISIH ZIYOFATI va XAMIRTURUSHSIZ NON BAYRAMI iboralariga qarang.

FISIH QURBONLIGI

BAYRAMLAR so‘zi ostida berilgan FISIH ZIYOFATI iborasiga qarang.

FISIH ZIYOFATI

BAYRAMLAR so‘ziga qarang.

FORS SHOHLIGI

Qadimgi qudratli shohlik. Fors shohligining poytaxti Bobil hozirgi janubiy Iroqda joylashgan edi. Bu shohlik “Midiya va Fors shohligi” deb ham ataladi, chunki Midiya bu shohlikning muhim viloyatlaridan biri edi. Fors qonunlari “Midiya va Fors qonunlari” deb atalgan[1]. Doniyor payg‘ambar Fors hukumatida yuqori lavozimni egallagan edi[2]. Ester kitobida tasvirlangan voqealar Shushan qal’asida — Fors shohlarining qishki qarorgohida yuz bergan. Hozirgi O‘zbekistonning aksariyat qismi va umuman O‘rta Osiyoning asosiy hududi miloddan oldingi oltinchi asrda Fors shohligi tarkibida bo‘lgan. Tarixshunoslar o‘sha davrdagi Fors shohligini Ahamoniylar davlati deb atashadi.

[1] Ester 1:19, Doniyor 6:8 [2] Doniyor 6:1-28

GILAD

Iordan daryosining sharqidagi bir o‘lka. Giladning janub tomonida Mo‘ab yurti, shimol tomonida esa Bashan o‘lkasi joylashgan edi.

GIRGOSH XALQI

Isroil xalqi Kan’on yurtini egallamasdan oldin o‘sha yerda yashagan xalqlardan biri. Girgosh xalqi Kan’on yurtining aniq qaysi joyida yashagani ma’lum emas. Yana KAN’ON XALQI, KAN’ON XALQLARI, KAN’ONDAGI XALQLAR iboralariga qarang.

GUNOH

Gunoh Xudoning amrlarini buzish, yomon ish qilish yoki yaxshilik qilishdan bosh tortish demakdir. Muqaddas Kitobga ko‘ra, gunoh tushunchasi nafaqat insonning xatti–harakatlarini, balki uning Xudoga yoki insonlarga qarshi o‘y–xayollarini ham qamrab oladi. Xudoning talabiga ko‘ra, har bir inson Xudoni butun qalbi bilan, jonu dili bilan, butun ongi bilan, kuchi boricha sevishi kerak[1]. Iso Masih, inson hatto o‘y–xayolida gunoh qilsa ham hukm qilinadi, deb ta’lim bergan[2]. Jumladan, g‘azab, mag‘rurlik, shahvat, rashk, xasislik kabi gunohlar ko‘zga ko‘rinmasa ham, Xudodan yashirin qolmaydi. Xudo ezgu, adolatli, muqaddas bo‘lgani uchun, qilingan har qanday gunoh Xudoga qarshidir[3].

Odam Ato va Momo Havo Xudoga itoatsizlik qilib, U bilan munosabatini buzganlar[4]. Buning oqibatida Odam Ato va Momo Havoning o‘zaro munosabati ham buzildi, dunyoda nomutanosiblik paydo bo‘ldi, butun dunyo la’natga giriftor bo‘ldi. Ularning hayoti tashvish, qayg‘u–azoblarga to‘ldi[5]. Gunoh tufayli dunyoga o‘lim kirib keldi va butun odamzod ustidan hukmron bo‘lib qoldi[6]. Gunoh har bir insonning tabiatida mavjud bo‘lgani uchun, uning niyatlarini, o‘y–fikrlarini, his–tuyg‘ularini va istaklarini buzadi[7]. Gunoh oqibatida odamzod Muqaddas Xudodan uzoqlashgan, ajralgan, Uning g‘azabi ostida qolgan va qiyomatda hukm qilinadi[8]. Faqatgina Iso Masihning to‘kilgan qoni tufayli inson gunohlaridan poklana oladi, Xudo bilan yarashadi va hukm qilinmaydi[9].

[1] Qonunlar 6:5, Luqo 10:27 [2] Matto 5:21-30 [3] Ibtido 4:10, Zabur 32:5, 44:8, 50:5-6, 88:15, Ishayo 5:16 [4] Ibtido 3:5-8 [5] Ibtido 3:16-19 [6] Rimliklar 5:12 [7] Zabur 50:7, 142:2, Yeremiyo 17:9, Rimliklar 3:10-12, 7:14-20 [8] Ishayo 59:2, Rimliklar 1:18-21, Efesliklar 5:5-6, Kolosaliklar 3:5-6 [9] 1 Yuhanno 2:1-2, Rimliklar 5:6-11, 6:22-23, 1 Salonikaliklar 5:9

GUNOH QURBONLIGI

QURBONLIK so‘ziga qarang.

HAVORIY

Ma’lum bir xabarni yetkazish uchun yuborilgan elchi. Yangi Ahdda bu so‘z asosan Iso Masihning o‘n ikki shogirdiga nisbatan ishlatilgan. Rabbimiz Iso havoriylarni odamlarga Xushxabar yetkazish uchun tanlagan edi[1]. Iso Masih tirilgandan keyin Uni ko‘rgan jamoat yo‘lboshchilariga nisbatan ham havoriy so‘zi ishlatilgan. Havoriy Pavlus ham ular qatorida edi[2]. Iso Masih Pavlusga[3] zohir bo‘lib, unga Xushxabarni yoyish vazifasini topshirgan[4]. Havoriylar barcha masihiylar orasida, ayniqsa o‘zlari asos solgan jamoatlarda katta obro‘–e’tiborga ega bo‘lib, qarorlar chiqarish huquqiga ega edilar[5]. “Havoriy” so‘zi Xushxabarni e’lon qilish uchun yuborilgan odamlarga nisbatan ham ishlatilgan.

[1] Luqo 6:12-16 [2] 1 Korinfliklar 15:5-9 [3] Pavlusning asl ismi Shoul edi. [4] Havoriylar 9:1-19, Galatiyaliklar 1:1-2, 11-12 [5] Havoriylar 14:23, 15:1-2, 22-29, 1 Korinfliklar 9:1-2, 12:28, Efesliklar 4:11-12

HOSIL BAYRAMI

BAYRAMLAR so‘ziga qarang.

HOVUZ

BRONZADAN YASALGAN HOVUZ iborasiga qarang.

IBLIS

SHAYTON so‘ziga qarang.

IBRONIY

Ehtimol, ibroniy so‘zi Ibir ismidan hosil bo‘lgandir[1]. Ibroniy so‘zi millat ma’nosida dastlab Ibrohimga va uning nasliga nisbatan qo‘llangan[2]. Keyinchalik bu nom Isroil xalqiga va yahudiylarga nisbatan ishlatilgan[3]. Yana YAHUDIY so‘ziga qarang.

[1] Ibtido 10:21 [2] Ibtido 14:13, 39:14,17, 40:15, 41:12, 43:32 [3] Misol uchun, Chiqish 1:15-19, 1 Shohlar 4:6, 2 Korinfliklar 11:22, Filippiliklar 3:5 ga qarang.

IBRONIY QO‘LYOZMALARI

IBRONIYCHA MATN iborasiga qarang.

IBRONIYCHA

Isroil xalqining ona tili. Isroil xalqi miloddan oldingi 586 yilda Bobilga[1] asir qilib olib ketilmasdan oldin ibroniy tilida so‘zlashardi. Isroil xalqi surgundan qaytgandan keyin asosan oramiy tilida[2] so‘zlashadigan bo‘ldi. Eski Ahdning aksariyat qismi ibroniy tilida, ayrim qismlarigina oramiy tilida yozilgan[3].

[1] BOBIL so‘ziga qarang. [2] ORAMIYCHA so‘ziga qarang. [3] jumladan, Ezra 4:8-6:18, 7:12-26, Doniyor 2:4-7:28

IBRONIYCHA MATN

Eski Ahdning eng qadimiy to‘liq ibroniycha qo‘lyozmasi *Leningrad Kodeksi*dir. Bu qo‘lyozma taxminan milodiy 1000 yillarda ko‘chirilgan. Mazkur qo‘lyozmaning nashr qilingan nusxasi *Bibliya Xebraika Stutgartensiya* deb ataladi. Olimlarning aksariyati *Leningrad Kodeksi*ni qadimda yahudiy kotiblari yozib qoldirgan qo‘lyozmalarning eng yaxshi nusxalaridan biri deb hisoblaydi. Bu kotiblar *Mazoretlar* deb atalgan bo‘lib, milodiy 500-1000 yillarda faoliyat ko‘rsatganlar. *Leningrad Kodeksi*ning asl nusxasi Sankt Peterburgdagi Rossiya Milliy Kutubxonasida saqlanadi[1].

Eski Ahdning o‘zbekcha tarjimasi, dunyodagi ko‘p zamonaviy tarjimalar singari, *Leningrad Kodeksi*ning matniga asoslangan. Eski Ahdning ayrim ibroniy qo‘lyozmalaridagi va uning yunon, lotin, suryoniy kabi tillarga qilingan tarjimalaridagi ba’zi so‘zlar *Leningrad Kodeksi*dan bir oz farq qiladi. O‘zbekcha tarjimaga berilgan izohlarda mana shu farqlarning ba’zilari ko‘rsatib o‘tilgan. Shu orqali kitobxon ma’lum bir oyat nima uchun ayrim farqlar bilan tarjima qilinganini tushunib oladi. Boshqa ibroniy qo‘lyozmalari va qadimgi tarjimalar haqida to‘liqroq ma’lumot quyida keltirilgan.

[1] Leningrad Kodeksi*ning fotonusxasi kitob oxirida “Muqaddas Kitob qo‘lyozmalarining fotonusxalari” degan qismda keltirilgan. Bu qo‘lyozmani internet orqali ko‘rsa ham bo‘ladi.*

IBRONIY QO‘LYOZMALARI

*Leningrad Kodeksi*dan boshqa ibroniy qo‘lyozmalari. Bu qo‘lyozmalarni ham *Mazoretlar* deb atalgan kotiblar ko‘chirgan. Olimlar asl matnning mazmunini yaxshiroq tushunish uchun

shu qo‘lyozmalardan foydalanadilar.

QUMRON QO‘LYOZMALARI

Qumron qo‘lyozmalari “O‘lik dengiz qo‘lyozmalari” degan nom bilan ham ma’lum bo‘lib, 1946-1956 yillar davomida O‘lik dengiz bo‘yidagi g‘orlardan topilgan. Eski Ahdning ba’zi qismlarini o‘z ichiga olgan bu qadimgi ibroniy qo‘lyozmalari yaxshi saqlanib qolgan. Olimlar asl matnning mazmunini yaxshiroq tushunish uchun mana shu qo‘lyozmalardan foydalanadilar. Qumron qo‘lyozmalari Eski Ahdning eng qadimiy nusxalari hisoblanib, aksariyati taxminan miloddan oldingi 100 yillarda yozilgan. Mazkur qo‘lyozmalar qadimda yahudiy kotiblari bo‘lgan *Mazoretlar* faoliyat ko‘rsatmaslaridan bir necha asrlar ilgari ko‘chirilgan.

Qumron qo‘lyozmalari to‘plamida Eski Ahddagi barcha kitoblarning parchalari bor. Bu qo‘lyozmalar orasida faqatgina Ester kitobi yo‘q. Ularning orasidagi eng diqqatga sazovori Ishayo kitobining to‘liq qo‘lyozmasidir[1]. Ishayo kitobining bu qo‘lyozmasi *Leningrad Kodeksi*dan 1000 yillarcha avval ko‘chirilgan bo‘lib, aksariyat hollarda faqat imlo va grammatik jihatdan bir oz farq qiladi. Bundan boshqa farqlari juda kam.

Eski Ahdning bugungi kungacha saqlanib qolgan eng qadimgi qo‘lyozmasi miloddan oldingi 600 yilda ko‘chirilgan bo‘lib, “kumush qo‘lyozmalari” deb ataladi. Bu qo‘lyozma ikki bo‘lak kumushga yozilgan bo‘lib, Sahroda 6:24-26 oyatlardagi duodan iborat. Kumush qo‘lyozmalari Quddus yaqinidagi g‘orga o‘yilgan qabrdan topilgan. Bu qo‘lyozmalardagi oyatlar *Leningrad Kodeksi*dan 1600 yil oldin yozilgan bo‘lsa ham, *Leningrad Kodeksi*dagi oyatlar bilan bir xildir. Qumron va kumush qo‘lyozmalaridan ko‘rinib turibdiki, yahudiy kotiblari asrlar davomida Eski Ahdning ibroniycha matnini yuksak diqqat–e’tibor bilan ko‘chirib, saqlab kelganlar.

[1] Qumron qo‘lyozmalari to‘plamidagi Ishayo kitobining fotonusxasi kitob oxirida “Muqaddas Kitob qo‘lyozmalarining fotonusxalari” degan qismda keltirilgan.

QADIMIY TARJIMALAR

Eski Ahdning asl matni mazmunini yaxshiroq tushunish maqsadida olimlar uning qadimiy tarjimalaridan foydalanadilar. Bu tarjimalar qadimda yahudiy kotiblari bo‘lgan *Mazoretlar* faoliyat ko‘rsatmaslaridan oldin qilingan. Qadimiy tarjimalar orasida eng muhimi — QADIMIY YUNONCHA TARJIMA. Bu tarjima *Septuaginta* deb ham ataladi[1]. *Septuaginta* miloddan oldingi 300-200 yillarda Eski Ahdning ibroniychadan qilingan birinchi tarjimasi bo‘lib, ilk jamoat masihiylari Septuagintadan keng foydalanganlar. Yangi Ahdda bu tarjimadan ko‘p iqtiboslar keltirilgan[2]. Muhim tarjimalardan yana biri QADIMIY SURYONIYCHA TARJIMA. Bu tarjima haqida ma’lumot kam, olimlar uni milodiy ikkinchi asrda tarjima qilingan, deb taxmin qiladilar. E’tiborga molik tarjimalardan yana biri QADIMIY LOTINCHA TARJIMA bo‘lib, *Vulgata* deb ham ataladi. Bu tarjima taxminan milodiy 400 yillarda qilingan. Bu qadimiy tarjimalar Qumron qo‘lyozmalari singari shundan dalolat beradiki, yahudiy kotiblari Eski Ahd matnini asrlar davomida yuksak diqqat–e’tibor bilan ko‘chirib, saqlab kelganlar.

[1] Septuaginta qo‘lyozmalaridan birining fotonusxasi kitob oxirida “Muqaddas Kitob qo‘lyozmalarining fotonusxalari” degan qismda keltirilgan. [2] Yana YUNON TILI VA MADANIYATI iborasiga qarang.

INOYAT

Muqaddas Kitobda “inoyat” va “inoyatli” so‘zlari odatda Xudoga va Uning qilgan ishlariga nisbatan ishlatilgan. Inoyat so‘zining tub ma’nosi shuki, Xudo buyuk va shartsiz sevgisi tufayli O‘z xohishi bilan insonlarga baraka beradi[1]. Bu dunyo yaratilgandan beri Xudoning inoyati odamzod va butun mavjudotning hayotida namoyon. Xudo ularga hayot ato etadi va yashash uchun zarur bo‘lgan narsalarni yetkazib turadi[2]. Xudo insonlarga va barcha xalqlarga inoyat ko‘rsatadi[3]. Eski Ahdda Xudoning Isroil xalqiga bo‘lgan cheksiz inoyatini biz Isroil tarixining turli davrlarida ko‘rishimiz mumkin. Isroil xalqining mo‘jizaviy tarzda Misrdagi qullikdan ozod bo‘lgani buning yaqqol misolidir[4].

Yangi Ahdda Iso Masihning bu dunyoga kelib, Unga ishonganlarga najot bergani Xudoning odamzodga ko‘rsatgan inoyatining eng yorqin namunasidir[5]. Iso Masih orqali Xudo insonlarni gunohdan ozod qilib, oqlaydi va ularga abadiy hayot ato etadi[6]. Bu inoyatga hech kim loyiq emas va inoyat insonning qilgan savob ishlariga bog‘liq emas[7]. Xudoning ko‘rsatgan inoyatiga munosib javob gunohdan yuz o‘girib, Xudoga itoatkor bo‘lishdir[8]. Xudo O‘z inoyati tufayli imonlilarga Muqaddas Ruhini ato etadi. Ular Muqaddas Ruh orqali bu dunyoda Xudoga xizmat qiladilar[9].

[1] Zabur 12:6, 144:8-9, Yeremiyo 31:2-3, Efesliklar

2:4-5 ² Ibtido 1:28-29, Zabur 146:7-9, Ayub 5:9-10, Havoriylar 14:16-17 ³ Yunus 4:2, Luqo 1:30 ⁴ Qonunlar 7:7-9, Zabur 102:6-14, 135:1-26 ⁵ Yuhanno 1:17, 3:16-17 ⁶ Rimliklar 3:23-24, 5:8-9, Efesliklar 1:7-8, Titus 3:4-7 ⁷ Rimliklar 11:5-6, Efesliklar 2:8-9, 2 Timo‘tiy 1:9-10 ⁸ Rimliklar 6:1-2, 15-19, Titus 2:11-14 ⁹ Havoriylar 1:8, 2:1-4, Rimliklar 12:6-8, 1 Korinfliklar 12:4-11, 2 Salonikaliklar 1:11-12

INSON O‘G‘LI

“Xushxabar” kitoblarida Iso Masih O‘ziga nisbatan ishlatgan unvon. Iso yashagan davrda yahudiylar bu unvon ostida *dunyoga hukm va najot keltiradigan Xudoning vakili*ni tushunganlar. Doniyor payg‘ambarga berilgan vahiyda inson qiyofasidagi bu zot to‘g‘risida bashorat qilingan[1]. Yahudiylar ko‘pincha Xudoning vakilini “Masih” deb ataganlar[2].

“Inson O‘g‘li” unvoni Eski Ahdning ibroniycha matnida ham bir necha marta uchraydi[3]. Bu o‘rinlarda payg‘ambar ham inson zotidan bo‘lib, abadiy yashamasligi, u ham Xudoning kuchiga muhtoj ekani ko‘rsatilgan. Bu ibora umuman bandalarga nisbatan ham ishlatilgan.

¹ Doniyor 7:13-14 ² MASIH so‘ziga qarang. ³ Misol uchun, Zabur 8:5, Hizqiyol 2:1, Doniyor 8:17 ga va o‘sha oyatlarning izohlariga qarang.

ISROIL

Yoqub Paniyolda Xudo bilan kurash tushgandan keyin, Xudo unga “Isroil” deb ism bergan[1]. Yoqub Ibrohimning nabirasi va Is’hoqning o‘g‘li edi. Yoqubning o‘n ikkita o‘g‘li bo‘lib, ulardan Isroilning o‘n ikki qabilasi kelib chiqqan. Eski Ahdda mana shu o‘n ikki qabila Isroil xalqi deb atalgan. Keyinchalik Isroil xalqi bosib olgan yerlar ham Isroil yurti deb nom olgan.

Shoh Sulaymon vafotidan keyin shimoldagi o‘nta qabila janubdagi Yahudo va Benyamin qabilalaridan ajralib chiqdi[2]. Bu o‘nta qabila alohida davlatni tashkil qilib, Isroil shohligi[3] deb nom oldi. Bu davlatning poytaxti Samariya bo‘ldi. Eski Ahdning ba’zi o‘rinlarida shimoldagi o‘nta qabilaga Isroil xalqi degan nom, bu qabilalar tashkil qilgan davlatga nisbatan Isroil yurti degan nom qo‘llangan. Miloddan oldingi 722 yilda Ossuriya shohligi Isroilni bosib olgach[4], shimoliy shohlik barham topdi.

Yangi Ahdda “Isroil” nomi siyosiy mustaqillikka ega davlatni emas, balki Yoqub naslini, ya’ni yahudiylarni bildirgan.

¹ Ibtido 32:28-29, 35:10 ² 3 Shohlar 11:26-12:24 ³ shimoliy shohlik iborasi bilan ham ma’lum ⁴ 4 Shohlar 17:1-6

ICHKI PARDA

Muqaddas chodirning Eng muqaddas xonasini Muqaddas xonasidan ajratib turgan parda. Bu parda mayin zig‘ir matosidan tikilgan bo‘lib, ustiga rangli iplardan karublar tasviri solingan edi[1]. Keyinchalik shunday parda Quddusdagi Ma’badning Eng muqaddas xonasini Muqaddas xonasidan ajratib turgan[2]. Iso Masih xochda jon berganda shoh Hirod qurdirgan Ma’baddagi parda yirtilib ketdi[3]. Ibroniylarga maktubning muallifi samoviy Ma’badda ham shu kabi parda borligini aytib o‘tadi[4].

¹ Chiqish 26:31-33 ² 2 Solnomalar 3:14 ³ Matto 27:50-51 ⁴ Ibroniylar 6:19-20

JABROIL

Muqaddas Kitobda ikkita farishtaning nomi aytib o‘tilgan, birinchisi — Jabroil, ikkinchisi — Mikoyil[1]. Jabroil Xudoning maxsus xabarini yetkazish uchun bir necha marta odamlarga zohir bo‘lgan. U Doniyor payg‘ambarga zohir bo‘lib, berilgan vahiylar va bashoratlarning ma’nosini tushuntirib bergan[2]. Yahyo payg‘ambarning otasi Zakariyoga ham zohir bo‘lib, Yahyoning tug‘ilishi haqida[3], Maryamga ham zohir bo‘lib, Iso Masihning tug‘ilishi haqida xabar bergan[4].

¹ Mazkur tarjimada Azroil farishta ham aytib o‘tilgan, Muqaddas Kitobning asl nusxasida Azroil “halok qiluvchi” deb berilgan. ² Doniyor 8:15-27, 9:20-27 ³ Luqo 1:8-20 ⁴ Luqo 1:26-38

JALILA

Jalila ko‘lining va Iordan daryosining g‘arb tomonida, Samariya hududidan shimolda joylashgan qirli yer. Qadimgi Falastin qatori, Jalila ham miloddan oldingi 63 yili Rim imperiyasi tomonidan bosib olingan. Ko‘p asrlar davomida bu hudud ajnabiy xalqlar hukmronligi ostida bo‘lgan, shuning uchun tub aholining orasida ko‘plab g‘ayriyahudiylar yashagan[1]. Shu sababga ko‘ra, boshqa yahudiylar Jalilaliklarga past nazar bilan qarar edilar. Isoning bolalik va o‘smirlik davri Jaliladagi Nosira shahrida o‘tgan. Iso O‘z xizmatini asosan Jalilada olib borgan.

¹ Ishayo 9:1-2, Matto 4:12-16

JAMOAT

Yangi Ahdda bu so‘z ma’lum bir joydagi masihiylar guruhiga nisbatan ishlatilgan. Ilk

jamoat Quddusda paydo bo‘lgan. U yerdagi imonlilar Xudoga sajda qilish uchun tez–tez yig‘ilib turar edilar. Iso Masih haqidagi Xushxabar keng tarqalgach, boshqa joylarda ham jamoatlarga asos solindi[1]. Jamoatdagi imonlilar bir–birlariga har jihatdan yordam berardilar[2]. Imonlilar uylarda yig‘ilganlarida ibodat qilardilar, Xudoga hamdu sanolar aytardilar va Isoning o‘limini xotirlab, birga taom tanovul qilar edilar[3]. Ular birgalikda Muqaddas bitiklarni o‘qib, saboq olardilar va imonda mahkam turish uchun bir–birlariga dalda berardilar[4]. Jamoatlarning yo‘lboshchilari bor edi, ularni yetakchi, oqsoqol yoki cho‘pon deb atashardi[5]. Jamoatda imonlilarga yordam beradigan odamlarni esa xizmatchilar deb atashgan[6].

Yangi Ahdda jamoat so‘zi yana Iso Masihga ishongan jamiki odamlarni bildirgan[7]. Jamoat so‘zining shu ma’nosini ifodalash uchun Yangi Ahdda bir necha timsollar berilgan. Ularning ba’zilari quyidagilardir: Iso Masihning tanasi[8], Ma’bad[9], Xudoning xonadoni[10].

[1] Havoriylar 8:1, 15:41, 1 Korinfliklar 16:19, Galatiyaliklar 1:1-2, Vahiy 1:11 [2] Havoriylar 2:44-45, 4:32, 34-35 [3] Havoriylar 2:42, 46, Rimliklar 16:4, 1 Korinfliklar 11:17-34, Efesliklar 5:19, Kolosaliklar 3:16, 4:15 [4] 1 Korinfliklar 14:26, 1 Timo‘tiy 4:13 [5] Havoriylar 14:23, Yoqub 5:14, 1 Butrus 5:1-4, Efesliklar 4:11, 1 Timo‘tiy 3:1-7, Titus 1:5-9 [6] Filippiliklar 1:1, 1 Timo‘tiy 3:8-13 [7] Matto 16:18, 1 Korinfliklar 5:12-13, Galatiyaliklar 1:13, Efesliklar 1:22, 3:10, 21, 5:23-32, Filippiliklar 3:6 [8] 1 Korinfliklar 12:12-13, 27, Efesliklar 5:23, 29-30, Kolosaliklar 1:24 [9] 1 Korinfliklar 3:16-17, 2 Korinfliklar 6:16, Efesliklar 2:21-22 [10] Efesliklar 2:19, 1 Timo‘tiy 3:14-15, Titus 1:7, Ibroniylar 3:6

JANG ARAVASI

Otlarga qo‘shiladigan, orqasi ochiq arava. Jangda ishlatilgan bo‘lib, harbiy kuch–qudrat va ustunlik belgisi edi.



JANNAT

Jannat deb tarjima qilingan yunoncha so‘zning ma’nosi “go‘zal bog‘” demakdir. Yangi Ahdda jannat so‘zi solihlar o‘lgandan keyin boradigan joyga ishora qiladi[1]. O‘sha bog‘da solihlar Hayot daraxti mevasidan yeyishga musharraf bo‘ladilar[2]. Jannat so‘zi yana arshi a’loga nisbatan ham ishlatilgan[3].

[1] Luqo 23:43 [2] Vahiy 2:7 [3] 2 Korinfliklar 12:2-4 ga va OSMON, SAMO so‘zlariga qarang.

JIN

Muqaddas Kitobda jin ba’zan yovuz ruh deb atalgan. Jinlarning hukmdori shaytondir. Jinlar insonlarga zarar yetkazishni istaydi. Ular ba’zan insonning ichiga kirib olib, uning xatti–harakatlarini boshqaradi. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun SHAYTON va FARISHTA so‘zlariga qarang.

KAN’ON

Kan’on Nuhning nabirasi va Xomning o‘g‘li edi. Qadimgi paytlarda O‘rta yer dengizi, Iordan daryosi va O‘lik dengiz oralig‘idagi yerlar ham Kan’on degan nom bilan yuritilgan. Kan’on yurtidan shimolda Lubnon tog‘lari, janubda esa Nagav cho‘li bor edi. Ibtido kitobida bayon qilinishicha, Xomning o‘g‘li Kan’ondan bir nechta xalq kelib chiqqan va o‘sha yerlarda yashagan[1]. Isroil xalqi bu yerlarni bosib olgandan keyin, Kan’on degan nom asta–sekin yo‘qolib ketdi. Uning o‘rniga bu yerlar “Isroil yurti” deb atala boshlagan, ancha vaqt o‘tgandan keyin esa “Falastin” nomi bilan tanilgan[2].

Muqaddas Kitobda Kan’on juda hosildor, “sut va asal oqib yotgan yurt” deb tasvirlangan[3]. Kan’on geografik jihatdan juda qulay va unumdor yer hisoblangan. Kan’on yurtidan janubi–g‘arbda joylashgan Sinay yarim oroli Osiyo va Afrika qit’alarini birlashtirib turadi. Shuning uchun muhim tijorat yo‘llari Kan’on orqali, O‘rta yer dengizi bo‘ylab o‘tgan. Qadimda Yaqin Sharqdagi qudratli shohliklar Kan’onni qo‘lga kiritishga harakat qilganlar.

[1] Ibtido 10:6, 15-19 ga va KAN’ON XALQI, KAN’ON XALQLARI, KAN’ONDAGI XALQLAR iboralariga qarang. [2] FALASTIN so‘ziga qarang. [3] Chiqish 3:8 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

KAN’ON XALQI, KAN’ON XALQLARI, KAN’ONDAGI XALQLAR

Isroil xalqi Kan’on yurtini egallamasdan oldin o‘sha yerda yashagan xalqlar. Bu xalqlar

quyidagilar edi: Amor xalqi, Girgosh xalqi, Xet xalqi, Xiv xalqi, Yobus xalqi, Kadmon xalqi, Xanaz xalqi, Xayin xalqi, Pariz xalqi, Rafa xalqi. Bu xalqlardan ba’zilari Kan’on yurtining aynan qaysi joyida yashagani ma’lum emas. Isroil xalqi Kan’onni bosib olgandan keyin ham, bu xalqlardan bir qanchasi o‘sha yurtda yashayverganlar. Yana KAN’ON so‘ziga qarang.

KARNAY BAYRAMI

BAYRAMLAR so‘ziga qarang.

KARUB, KARUBLAR

Qanotli samoviy mavjudotlar. Bu mavjudotlar haqida so‘z yuritilganda, ular odatda Xudoning taxti yonida tasvirlanadi. Eski Ahdning ba’zi o‘rinlarida esa karublar Xudoning taxtini ko‘tarib yurgani haqida bayon qilinadi[1].

Mana shu samoviy mavjudotlarning haykallari va o‘yma, naqsh solingan tasvirlari Xudoning ulug‘vorligi va Uning O‘z xalqi orasida ekanligining ramzidir. Ahd sandig‘i qopqog‘i ustida ikki karub haykali bor edi[2]. Muqaddas chodirning Eng muqaddas xonasini Muqaddas xonasidan ajratib turgan ichki pardaga karublar tasviri solingan edi. Keyinchalik shoh Sulaymon balandligi 4,5 metr bo‘lgan karublarning ikkita haykalini yasattirib, Ma’badning Eng muqaddas xonasiga qo‘ydirgan[3]. Shoh Sulaymon qurdirgan Ma’badning ichki pardasi, devorlari va eshiklari ham karublar tasviri bilan bezatilgan edi[4].

[1] Hizqiyol 1, 10–boblar [2] Chiqish 25:18-20 ga va AHD SANDIG‘I iborasiga ishlangan rasmga qarang. [3] 3 Shohlar 6:23-28 ga va lug‘atdan keyin ilova qilingan “Rasmlar va loyihalar” bo‘limida berilgan “Shoh Sulaymon qurdirgan Ma’bad” rasmiga qarang. [4] 2 Solnomalar 3:14, 3 Shohlar 6:29-35


KUYDIRILADIGAN QURBONLIK, KUYDIRILADIGAN NAZR

QURBONLIK so‘ziga qarang.

KO‘KRAKPECH

Oliy ruhoniy ko‘ksiga taqadigan, qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan maxsus xalta. Ko‘krakpech xaltasiga Urim va Tummim degan muqaddas narsalar solingan edi. Oliy ruhoniy Xudoning irodasini bilish uchun Urim va Tummimdan foydalangan[1].

[1] Chiqish 28:15-30




LEVI, LEVILAR

Yoqubning o‘g‘li Levi qabilasidan bo‘lgan erkaklar. Xudo Levi qabilasidan bo‘lgan Horun naslini Isroil xalqining ruhoniylari qilib tanlagan edi[1]. Levi qabilasining qolgan erkaklari diniy marosimlarni bajarishda yordam berganlar. Bundan tashqari, ular Muqaddas chodirga, keyinchalik esa Ma’badga, uning ashyolari va buyumlariga ham mas’ul edilar[2]. Xudo Isroil xalqining to‘ng‘ich o‘g‘illari o‘rniga levilarni O‘z xizmatiga olgandi. Zotan, Isroilning to‘ng‘ich o‘g‘illari Xudoga tegishli edi[3]. Keyinchalik shoh Dovud levilarning ba’zilarini Xudoga sajda qilish paytida ashula aytishga va musiqa chalishga tayinlagan[4].

[1] RUHONIY so‘ziga qarang. [2] Sahroda 3:5-10, 1 Solnomalar 23:25-29, 32 [3] Sahroda 3:11-13, 40-51 [4] 1 Solnomalar 6:31-32, 23:30-31

LIRA

Torli musiqa asbobi.



LUBNON

Lubnon tog‘ tizmasi bo‘lib, hozirgi Livan mamlakatida joylashgan. Lubnon tog‘lari sadr daraxtlari bilan mashhur edi. Shoh Sulaymon Quddusdagi Ma’badni va o‘z saroyini Lubnonning sadr yog‘ochlaridan qurdirgan[1].

[1] 3 Shohlar 5:6-10, 6:15-20, 7:2-3

MA’BAD

Biron xudoga sajda qilish uchun qurilgan bino. Odatda xudolarga atab ma’badlar qurilardi, sajda qiluvchilar, xudo o‘z ma’badida zohir bo‘ladi, deb ishonardilar. Shu sababdan ular ma’badni xudoning uyi deb ham atardilar. Mazkur tarjimada ma’bad so‘zi katta harf bilan yozilgan bo‘lsa, asosan Quddusdagi Egamizning Ma’badi nazarda tutilgan. Shoh Sulaymon davridan boshlab butun Isroil xalqi Egamizga Quddusdagi Ma’badda sajda qilardi. Ular Ma’badda qurbonliklar keltirardilar va muhim bayramlarni shu yerda nishonlar edilar.

Isroil tarixida Quddusda bir necha marta Ma’bad qurilgan, ammo bosqinchilar tomonidan vayron qilingan[1]. Birinchi Ma’badni shoh Sulaymon qurdirgan. Bu Ma’bad 3 Shohlar 6:1-38, 7:13-51, 2 Solnomalar 2:1-4:22 da batafsil tasvirlangan. Miloddan oldingi 586 yilda Bobilliklar bu Ma’badni vayron qilib, undagi barcha qimmatbaho ashyolarni Bobilga olib ketganlar[2]. Yahudo xalqi Bobilga surgun qilindi. Ular Bobilda surgunda yashar ekanlar, Xudo Hizqiyol payg‘ambarga yangi Ma’bad haqida vahiy yuborgan edi[3].

Miloddan oldingi 538 yilda Fors shohi Kurushning farmoniga ko‘ra, ba’zi yahudiylar Quddusga qaytib kelib, Ma’badni qayta qurishni boshladilar. Ammo ular Ma’bad poydevorini yotqizganlaridan keyin ko‘p qarshiliklarga duch keldilar va qurilish ishlarini to‘xtatishga majbur bo‘ldilar. Bu hol Fors shohi Doro taxtga chiqqunga qadar davom etdi. Miloddan oldingi 520 yildagina ular Ma’bad qurilishini davom ettirdilar. Xaggey va Zakariyo payg‘ambarlar Xudodan olgan bashoratlari bilan Ma’badni qurayotganlarni ruhlantirib turdilar. Nihoyat, miloddan oldingi 515 yilga kelib, Ma’bad qurib bitkazildi[4]. Ammo miloddan oldingi 175-164 yillarda Suriyada hukmronlik qilgan Antiox IV[5] boshchiligida yunonlar Quddusga bostirib kelib, ikkinchi marta qurilgan bu Ma’badni talon–taroj qilganlar, uni bulg‘aganlar[6]. Keyinchalik, miloddan oldingi 37-4 yillarda qadimgi Falastinda[7] hukmronlik qilgan Buyuk Hirod miloddan oldingi 19 yilda Ma’badni qayta qurishni boshlagan. Qurilish ishlari Iso Masih davrida ham davom etayotgan edi. Qayta qurilgan o‘sha Ma’bad milodiy 70 yilda Rimliklar tomonidan vayron qilindi. Shundan keyin Ma’bad qayta qurilmadi.

“Ma’bad” so‘zi asosiy binoga yoki butun Ma’bad majmuasiga nisbatan ishlatilgan. Ma’badning asosiy binosi Muqaddas xona va Eng muqaddas xonadan iborat edi. Bu xonalarga ma’lum bir marosimlarni bajarish uchun faqatgina ruhoniylar kirishga haqli edilar[8]. Xalq Ma’bad hovlisida Xudoga sajda qilgan. Hirod qurdirgan Ma’badning asosiy binosiga yaqin hovli yahudiy erkaklari uchun, uning yonidagi hovli esa yahudiy ayollari uchun ajratilgan edi. Ma’bad majmuasining ichki hovlisi Isroil xalqi uchun, tashqi hovli esa g‘ayriyahudiylar uchun edi. Iso Masih Ma’baddagi savdogarlarni haydagani to‘g‘risidagi voqea tashqi hovlida yuz bergan bo‘lishi mumkin[9].

Muqaddas Kitobda Ma’bad ba’zan “muqaddas maskan” yoki “muqaddas makon” deb aytilgan. Ba’zan esa Xudoning samoviy maskani “Ma’bad” deb atalgan[10].

[1] Ma’badning rasmlari va loyihalari lug‘atdan keyin ilova qilingan “Rasmlar va loyihalar” bo‘limida berilgan. [2] 4 Shohlar 25:8-17 [3] Hizqiyol 40-46–boblar [4] Ezra 1:1-11, 3:7-4:5, 5:1-2, 6:14-15 [5] Doniyor 8:12 izohiga qarang. [6] Doniyor 9:27 ning oxirgi izohiga qarang. [7] FALASTIN so‘ziga qarang. [8] MUQADDAS XONA va ENG MUQADDAS XONA iboralariga qarang. [9] Yuhanno 2:13-22 [10] Misol uchun, Zabur 10:4, Vahiy 11:1, 19, 15:5-8 ga qarang.

MALAK

FARISHTA so‘ziga qarang.

MASIH

Masih ibroniychadagi “Mashiax” so‘zidan olingan bo‘lib, yunon tiliga “Xristos” deb tarjima qilingan. Ibroniy tilida bu so‘z “moy surtilgan” degan ma’noni bildiradi. Qadimgi Isroilda biron odamni ruhoniy, payg‘ambar yoki shoh qilib tayinlashda boshiga zaytun moyi surtilardi[1]. Bu harakat o‘sha odamning Xudo tomonidan tanlanganini va Xudoning xizmatiga bag‘ishlanganini bildirardi. Shu sababdan Masih so‘zi “Xudo tomonidan tanlangan” degan ma’noni ham anglatadi.

Eski Ahddagi bashoratlarga ko‘ra, bir kun kelib, shoh Dovudning zurriyotidan bo‘lgan bir zot Isroil xalqini dushmanlaridan qutqaradi va yer yuzida abadiy adolat o‘rnatib, barcha xalqlar ustidan hukmronlik qiladi[2]. Keyinchalik yahudiylar va’da qilingan o‘sha qutqaruvchini “Masih” deb ataydigan bo‘ldilar. Yahudiylarning yurti Rim imperiyasi istibdodida qolganda ko‘p yahudiylar, Masih kelib, bizni ajnabiylar qo‘lidan qutqaradi hamda Isroil shohligining

ulug‘vorligini qayta tiklaydi, deb umid qilganlar[3].

Yangi Ahdga ko‘ra, Rabbimiz Iso Eski Ahddagi bashoratlarda aytib o‘tilgan Masihdir[4]. Iso Masih O‘z va’zlari orqali Xudoning Shohligi kelishini e’lon qilgan, ammo bu Shohlik zaminiy shohlik emas edi[5]. Iso Masih xochdagi o‘limi orqali iblisning qudratini yo‘q qildi, gunohga va o‘lim qo‘rquviga qul bo‘lgan butun odamzodga ozod bo‘lish imkonini berdi[6]. Shuning uchun Isoga ishonganlar Uni “Masih” deb atashadi.

[1] Chiqish 28:41, 1 Shohlar 10:1, 3 Shohlar 19:15 [2] Misol uchun, Ishayo 9:6-7, 11:1-5, 42:1-4, Yeremiyo 23:5-6 ga qarang. [3] Havoriylar 1:6 [4] Matto 16:15-17, Luqo 2:11, Yuhanno 20:31, Havoriylar 2:36 [5] Yuhanno 18:36 [6] Matto 1:20-23, Luqo 4:16-21, 24:44-48, Ibroniylar 2:14-15

MIDIYA

Qudratli shohlik bo‘lib, hozirgi Eron mamlakatining shimoli–g‘arbida joylashgan edi. Miloddan oldingi 550 yilga kelib, Midiya Fors shohligining eng muhim viloyatiga aylandi, shu bois Fors qonunlari “Midiya va Fors qonunlari” deb ataladigan bo‘ldi[1].

[1] Ester 1:19, Doniyor 6:8

MIDIYA VA FORS SHOHLIGI

FORS SHOHLIGI iborasiga qarang.

MIDIYON, MIDIYON XALQI, MIDIYONLIKLAR

Ibrohim Soraning vafotidan keyin Xaturo ismli bir ayolga uylandi. Xaturo Ibrohimga oltita o‘g‘il tug‘ib berdi. O‘g‘illardan birining ismi Midiyon edi[1]. Midiyondan tarqalgan avlod Midiyon xalqi degan nom bilan tanildi. Ular ko‘chmanchi xalq bo‘lib, asosan hozirgi Aqaba qo‘ltig‘ining sharq tomonidagi sahroda yashardilar. Shu sababdan u yerlar Midiyon yurti, o‘sha joyda yashagan xalq Midiyonliklar deb atalgan. Midiyonning avlodi Ibrohimning o‘g‘li Ismoildan kelib chiqqan ko‘chmanchi xalqqa qarindosh bo‘lgani uchun, ular ba’zan Ismoiliylar deb ham yuritilgan. Shuning uchun “Midiyon” va “Ismoil” degan nomlar ba’zan bir–birining o‘rnida ishlatilavergan.

[1] Ibtido 25:1-2

MIKOYIL

Muqaddas Kitobda ikkita farishtaning nomi aytib o‘tilgan, birinchisi — Mikoyil, ikkinchisi — Jabroil[1]. Mikoyil bosh farishtalardan biri bo‘lib, Isroil xalqining himoyachisi deb atalgan[2]. Mikoyil va uning qo‘li ostidagi farishtalar shayton va uning yovuz farishtalari bilan jang qilib, ularni samodan haydaganlar[3].

[1] Mazkur tarjimada Azroil farishta ham aytib o‘tilgan, Muqaddas Kitobning asl nusxasida Azroil “halok qiluvchi” deb berilgan. [2] Doniyor 10:13, 20-21, 12:1, Yahudo 9 [3] Vahiy 12:7-9

MISR

Qadimgi Misr Eski Ahdda ko‘p tilga olingan va dunyo tarixida muhim iz qoldirgan. Misr hukmdorlari “Fir’avn” deb atalardi. Misr sivilizatsiyasi juda rivojlangan bo‘lib, xalqaro tijoratda ham asosiy o‘rin tutgan. Nil daryosining suvlari va hosildor yerlar Misr aholisining oziq–ovqat bilan doimo ta’minlanishiga muhim omil edi. Shuning uchun Ibrom, ya’ni Ibrohim payg‘ambar va uning oilasi Kan’on yurtida qurg‘oqchilik bo‘lgan paytda Misrda ma’lum vaqt yashagan[1]. Ibrohim o‘g‘li Is’hoqning Yusuf degan nevarasi bor edi. Yusufni o‘z aka–ukalari Ismoiliy savdogarlarga qul qilib sotib yuborishadi[2]. Lekin vaqti kelib, Yusuf fir’avnning farovonlik va qahatchilik haqidagi karomatli tushini ta’bir qilib bergani uchun Misr hokimi etib tayinlanadi[3]. Qahatchilik davrida Yusuf Misr xalqini va otasi Yoqubning butun xonadonini qutqarib qoladi[4]. Yusufning otasi Yoqub va uning xonadoni Kan’ondan Misrga ko‘chib keladi[5]. Bir necha nasl o‘tgandan keyin Yoqubning avlodi Misrda qul bo‘lib qoladi[6]. Muso payg‘ambar Xudoning amri bilan mo‘jizalar ko‘rsatib, Isroil xalqini qullikdan ozod qiladi va Misrdan olib chiqadi[7].

Misr hukmdorlari ko‘pincha o‘z yurtidan tashqarida, ayniqsa Kan’on yurtiga katta siyosiy ta’sir o‘tkazardi va ba’zan atrofdagi yerlarga harbiy yurishlar qilardi. Kan’on Misrdan shimoli–sharqda joylashgan bo‘lib, Isroil xalqi u yerlarda yashar edi. Isroil shohi Sulaymon Misr fir’avnining qizlaridan biriga uylanib, fir’avn bilan aloqasini mustahkamladi[8]. Payg‘ambarlar ko‘pincha Yahudoni, ya’ni janubiy shohlik aholisini, Misrning harbiy kuchiga ishonmanglar, deb ogohlantirganlar[9]. Eski Ahdda Misrning qismati haqida bashoratlar bor[10]. Yahudo shohligi Bobil shohligiga mag‘lub bo‘lgandan keyin Yahudo aholisidan ba’zilari Misrga qochib ketganlar. Yeremiyo payg‘ambar ularni Misrda kutib turgan falokatlar haqida ogohlantirsa ham, ular Misrga ketganlar[11].

Miloddan oldingi 525 yilda Fors shohligi Misrni bosib oldi. Ikki yuz yildan keyin esa Iskandar Zulqarnayn Misrni hech qanday

qarshiliksiz qo‘lga kiritdi. U O‘rta yer dengizi bo‘yida shahar qurdirib, unga Iskandariya deb nom berdi va o‘sha shaharni Misrning yangi poytaxti qildi. Ko‘p yahudiylar Iskandariya shahriga borib o‘rnashdilar, bu shahar uzoq asrlar davomida yahudiylarning diniy ta’lim markazi bo‘lib kelgan. Aynan shu shaharda miloddan oldingi uchinchi asrda Eski Ahd ibroniychadan ilk bor yunon tiliga tarjima qilingan. Miloddan oldingi 198 yilda Suriya Yahudiya o‘lkasini bosib oldi. Shunga qadar Yahudiyani Misrda hukmronlik qilgan yunon shohlari boshqarganlar[12]. Buyuk Hirod chaqaloq Isoni o‘ldirmoqchi bo‘lganda, Uni ota–onasi Misrga olib qochgan[13].

[1] Ibtido 12:10-20 [2] Ibtido 37:25-28 [3] Ibtido 41:1-44 [4] Ibtido 41:46-49, 53-57 [5] Ibtido 45:16-20, 46:1-7 [6] Chiqish 1:8-14 [7] Chiqish 2:1-15:21 [8] 3 Shohlar 3:1, 9:16 [9] Ishayo 20:1-6, 30:1-7, 31:1-3, Yeremiyo 2:36-37, 37:5-8 [10] Misol uchun, Ishayo 19:1-25, Yeremiyo 46:1-26, Hizqiyol 29:1-32:32, Doniyor 11:2-45 ga qarang. [11] Yeremiyo 42:1-44:30 [12] Doniyor 11:5-16 [13] Matto 2:13-15

MOY

Muqaddas Kitobda moy so‘zi ostida zaytun mevasidan olingan moy nazarda tutiladi[1]. Qadimgi Isroilda zaytun moyidan keng foydalanilgan. Jumladan, moychiroqlar uchun, teridagi yara va jarohatlarni davolash uchun zaytun moyi ishlatilgan. Shuningdek, boy odamlar badanlarini parvarish qilish uchun a’lo sifatli zaytun moyidan foydalanganlar. Ba’zan zaytun moyi atir bilan aralashtirilib, Yoqimli hid taralishi uchun sochga, teriga surtilgan. Biron odamni ruhoniy, payg‘ambar yoki shoh qilib tayinlashda boshiga a’lo sifatli zaytun moyi surtilgan. Muqaddas chodirdagi va Ma’baddagi buyumlarni muqaddas qilish uchun ham zaytun moyi ishlatilgan. Xullas, moy birdamlik, farovonlik, poklik va Xudo Ruhining qudrati ramzi bo‘lgan.

[1] ZAYTUN so‘ziga qarang.

MOY SURTIB TANLAMOQ

Eski ahd davrida Xudo biror kishini ruhoniy, payg‘ambar yoki shoh qilib tanlaganda uning boshiga zaytun moyi surtishga amr berar edi[1]. Zaytun moyi Xudo Ruhining ramzi bo‘lib, moy surtilgan odamning poklanganini va unga qudrat ato qilinganini bildirar edi. Shu yo‘l bilan tanlangan odam, ayniqsa shoh ibroniy tilida “mashiax”, ya’ni “moy surtib tanlangan” deb atalardi. “Mashiax” so‘zi keyinchalik unvon sifatida ishlatiladigan bo‘ldi[2]. Muqaddas chodirdagi va Ma’baddagi buyumlar ham zaytun moyi surtish orqali muqaddas qilingan.

[1] MOY so‘ziga qarang. [2] MASIH so‘ziga qarang.

MOYCHIROQ

Qadimgi paytlarda moychiroqdan keng foydalanilgan. Bu chiroq kichik bir sopol idish bo‘lib, unga zaytun moyi quyilgan. Chiroqning piligi bo‘lgan. Metalldan yasalgan chiroqlar qimmat hisoblangan.



MUHR

Ip bilan bo‘yinga osiladigan silindr shaklidagi buyum yoki muhr uzugi. Qadimda birorta xatni yoki hujjatni rasmiylashtirish uchun, unga mum, qo‘rg‘oshin yoki biror yumshoq modda surtilib surg‘uchlangan, ustidan muhr bosilgan. Bu muhr xat yoki hujjat yuborayotgan odamning hokimiyatini bildirib, xat yoki hujjatning rasmiyligini ko‘rsatar edi.



MUQADDAS

Muqaddas Kitobda muqaddas so‘zi asosan Xudoga nisbatan ishlatilgan. Bu so‘z Xudoning butun borliqdan ustunligini va tengsizligini bildiradi. U tanho, haqiqiy Xudodir. Xudo tamomila pok, gunohsiz va nuqsonsizdir.

Muqaddas so‘zi narsalarga va odamlarga nisbatan ham ishlatilgan. Bu holda muqaddas so‘zi “pok, tabarruk, ajratilgan, ajratib olingan, bag‘ishlangan” ma’nolarini ifodalaydi. Bu so‘z Muqaddas chodirdagi, keyinchalik esa Ma’baddagi buyumlarga va jihozlarga nisbatan ishlatilgan. Muqaddas joy yoki buyum Xudoga bag‘ishlangan bo‘lib, ularga nisbatan ehtiyotkorlik va e’tibor bilan munosabatda bo‘lish talab qilingan. Muqaddas chodirda, keyinchalik esa Ma’badda xizmat qilgan ruhoniylar ham muqaddas hisoblangan. Ruhoniyga nisbatan qo‘llangan muqaddas so‘zi uning Xudoga xizmat qilishga bag‘ishlanganini va maxsus vazifasi bo‘lganini ko‘rsatadi. Odamlar va buyumlar Tavrotda buyurilgan qurbonliklar va diniy marosimlar orqali poklanib, muqaddas qilinganlar. Xudo O‘z xalqiga: “Muqaddas bo‘linglar”, deb amr bergan. Buning mazmuni shundan iboratki, Isroil xalqi boshqa xalqlardan ajralib turishi, o‘zlarini Xudoga bag‘ishlab, Uning qonunlarini bajarishlari kerak edi.

MUQADDAS NON

Muqaddas chodirdagi xontaxtaga, keyinchalik Ma’baddagi xontaxtaga qo‘yilgan o‘n ikkita xamirturushsiz non. Bu nonlar Egamizning huzuridagi xontaxtaga qo‘yilgan, shuning uchun ibroniychada “huzuridagi non” deb atalgan. Nonlar xontaxtada bir hafta turgach, yangi yopilgan o‘n ikkita non bilan almashtirilgan. Xontaxtadan olingan nonlarni faqat ruhoniylar yeyishgan[1]. Muqaddas nonlar Egamizning huzurini bildiruvchi ramz bo‘lib, Xudo Isroil xalqining qudrati va ta’minlovchisi ekanligidan ham darak berib turgan.

[1] Levilar 24:5-9

MUQADDAS RUH

XUDONING RUHI iborasiga qarang.

MUQADDAS XONA

Muqaddas chodirning, keyinchalik esa Ma’badning kiraverishidagi katta xonasi[1]. Muqaddas xonada oltindan yasalgan tutatqi qurbongohi, oltin chiroqpoya va muqaddas nonlar turadigan xontaxta bor edi. Muqaddas xonani Eng muqaddas xonadan katta parda ajratib turardi. Tavrotga ko‘ra, ruhoniy bir kunda ikki marta — ertalab va kechqurun Muqaddas xonaga kirib, oltin qurbongohda tutatqi tutatardi. Muqaddas xonaga faqat ruhoniylar kirishga haqli edilar. Yana ENG MUQADDAS XONA iborasiga qarang.

[1] Lug‘atdan keyin ilova qilingan “Rasmlar va loyihalar” bo‘limiga qarang.

MUQADDAS XUDO

XUDONING NOMLARI iborasiga qarang.

MUQADDAS CHODIR

Isroil xalqi Xudoga sajda qilishda ishlatgan chodir[1]. Isroil xalqi Sinay tog‘ida turganda, Xudo Musoga Muqaddas chodirni va uning hamma jihozlarini yasashni buyurib, ularning aniq namunasini ko‘rsatgan[2]. Bu chodirni bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirish mumkin edi. Muqaddas chodir termini chodirning o‘ziga nisbatan ham, uning atrofidagi maxsus to‘siqlar bilan ajratilgan yerga nisbatan ham ishlatiladi. Muqaddas chodirning Eng muqaddas xonasida Ahd sandig‘i saqlangan. Bu chodir Uchrashuv chodiri deb ham atalgan. Isroil xalqi qurbonliklar keltirganda Xudo O‘z xalqi bilan uchrashish uchun shu chodirda zohir bo‘lar edi[3]. Keyinchalik shoh Sulaymon Xudoga atab, Quddusda Ma’bad qurdirdi.

Muqaddas Kitobda Muqaddas chodir ba’zan “muqaddas maskan” yoki “muqaddas makon” deb aytilgan. Ibroniylarga maktubda samodagi Chodir bir necha marta tilga olingan. Iso Masih mana shu samoviy Chodirning Eng muqaddas xonasida oliy ruhoniy bo‘lib xizmat qilyapti[4].

[1] Muqaddas chodirning rasmi lug‘atdan keyin ilova qilingan “Rasmlar va loyihalar” bo‘limida berilgan. [2] Chiqish 25:8-9, 26:1-37, 27:9-19 [3] Chiqish 29:42-43 [4] Ibroniylar 8:1-2, 9:11-12, 24

MO‘AB, MO‘AB XALQI, MO‘ABLIKLAR

Bu xalq Ibrohimning jiyani Lut naslidan edi. Lutga qizlari sharob berib, mast qilib qo‘ygach, katta qizi otasi yoniga kirib, otasidan homilador bo‘lgan va o‘g‘li Mo‘abni tuqqan edi[1]. Mo‘ab xalqi Mo‘ab yurtida yashardi. Bu yurt O‘lik dengizning sharqidagi yassi tepalikda joylashgan bo‘lib, yeri hosildor edi. Mo‘ab xalqi xudo Xamo‘shga sajda qilardi. Mo‘ab tili ibroniy tiliga yaqin edi. Ammo ular Isroil xalqining dushmani edilar. Isroil payg‘ambarlari Mo‘ab xalqining ayanchli qismati haqida ko‘p bashorat qilganlar[2]. Bobilliklar ularni qirib tashlagandan keyin, bu xalq nom–nishonsiz yo‘q bo‘lib ketdi.

[1] Ibtido 19:30-38 [2] Ishayo 15-16–boblar, Yeremiyo 48–bob, Zafaniyo 2:8-11

MO‘LAX

Ommon xalqining xudosi[1]. Odamlar o‘z farzandlarini qurbonlik qilish orqali Mo‘laxga sajda qilar edilar. Xudoning qonunlarida bunday odat qat’iyan man etilgan. Ammo Quddusga yaqin joydagi Xinnum soyligida hatto Isroil xalqi ham Mo‘laxga sajda qilib, farzandlarini qurbonlik qilgani kuzatilgan[2].

[1] 3 Shohlar 11:7 [2] Levilar 18:21, 20:2-5, Yeremiyo 32:35

NAJOT

Ibroniy va yunon matnlarida “najot” tushunchasini ifodalaydigan bir nechta so‘z ishlatilgan bo‘lib, ular mazkur tarjimada “najot, qutqarmoq, xalos qilmoq, ozod qilmoq” kabi so‘zlar bilan berilgan. Bu so‘zlar odamlarning va butun bir xalqning dushmanlardan yoki ularning hayotiga xavf solayotgan boshqa narsalardan xalos bo‘lishini ifodalaydi.

Eski Ahdda birorta odam ma’lum bir vaziyatda boshqalarni xavf–xatardan qutqarganda “qutqaruvchi” deb atalgan[1]. Aksariyat hollarda esa “Qutqaruvchi, Xaloskor va Najotkor” degan nom Xudoning O‘ziga nisbatan ishlatilgan[2]. Isroil xalqi tarixidagi eng buyuk voqealardan biri ularning Misrdagi qullikdan ozod bo‘lganidir. Xudo Muso orqali mo‘jiza ko‘rsatib, O‘zining Qutqaruvchi ekanligini namoyon qilgan[3]. Xudo Isroil xalqini ko‘p marotaba qutqargani uchun, ular, kelajakda Egamiz bizni barcha dushmanlardan va yovuzlikdan xalos qiladi, degan umidda o‘sha vaqtni intizorlik bilan kutganlar. Yana Eski Ahdda payg‘ambarlar bashorat qilib, Xudo O‘zining solih qulini yuboradi va insonlarni gunohlardan xalos qiladi, deb aytganlar. Bashoratlarga ko‘ra Xudoning bu sodiq quli payg‘ambar Dovudning avlodidan kelib chiqardi[4].

Yangi Ahdda bayon qilinishicha, odamlar Iso Masihning o‘limi va tirilishiga ishonish orqali gunohdan xalos bo‘ladilar[5]. Demak, har bir inson millati, irqi va madaniyatidan qat’i nazar, najotga erishishi mumkin[6]. Bu najot odamning qilgan savob ishlariga bog‘liq emas. Odam faqatgina Xudoning marhamati va inoyati tufayli gunohlaridan forig‘ bo‘lib, Iso Masih orqali abadiy hayotga ega bo‘ladi[7]. Iso Masihga imon keltirib, tavba qilgan har bir insonni Xudo kechiradi[8]. Shuning uchun Xudoning O‘zi ham, Iso Masih ham “Najotkor” deb ataladi[9].

Iso Masihga imon keltirgan odam Xudo bilan yarashgani uchun bu dunyodaYoq najotga erishgan deb hisoblanadi[10]. Najotga erishgan har bir insonning hayotida Muqaddas Ruh amal qiladi[11]. Najot uzluksiz bir jarayon bo‘lib, unga erishgan har bir insonning fikrlashi va xulq–atvori o‘zgaradi va bunday inson o‘z hayotini Xudoni mamnun qilish niyatida yashaydi[12]. Masihiylar qiyomat kuni ham hukm qilinmaydilar[13]. Masihning xochdagi o‘limi va tirilishi tufayli ular bu dunyoda ham, narigi dunyoda ham najotga egadirlar[14]. Shu sababdan imonlilar o‘lgandan keyin Xudo bilan birga jannatda bo‘lishlariga qat’iy ishonadilar[15].

[1] Hakamlar 3:9, 15, Naximiyo 9:27 [2] 2 Shohlar 22:2-3, 1 Solnomalar 16:35, Zabur 33:5-8, 18-20, 39:18, 77:35, Ishayo 43:3, 11, 49:26, Doniyor 6:27 [3] Chiqish 14:1-31, 15:1-21 [4] Ishayo 42:1-4, 52:13-53:12, Hizqiyol 37:23-25, Zakariyo 3:8-9 ga va MASIH so‘ziga qarang. [5] Matto 1:21, Luqo 2:10-11, 30-31, Havoriylar 4:11-12, Rimliklar 5:9-10 [6] Havoriylar 17:30-31, Rimliklar 1:16-17, 10:12-13 [7] Rimliklar 3:20-24, Efesliklar 2:8-9 [8] Havoriylar 2:38-39, 10:43, 16:30-31, Rimliklar 10:9-10 [9] Luqo 1:47, 69-70, 2:11, Havoriylar 5:31, Filippiliklar 3:20, 1 Timo‘tiy 1:1, 2:3, 2 Timo‘tiy 1:10, Titus 1:3-4 [10] Rimliklar 8:24, 29-30, Efesliklar 2:4-6, 2 Timo‘tiy 1:9 [11] Rimliklar 8:15-16, 2 Korinfliklar 1:21-22, Efesliklar 1:13-14 [12] 1 Butrus 2:1-3, 1 Korinfliklar 1:18 [13] Yuhanno 3:15-16, 36, 5:24, 6:40, 1 Yuhanno 4:15-17, 5:13, Rimliklar 8:1-2, Filippiliklar 1:28, Ibroniylar 9:27-28 [14] 1 Butrus 1:3-5, 2 Butrus 1:3-8, Titus 3:4-7 [15] Luqo 23:42-43, 2 Korinfliklar 5:1-2, 6-8, Filippiliklar 1:21-23, 1 Salonikaliklar 4:16-17, 5:9-10, Vahiy 22:3-5

NAZR

Odamlar Xudoga sajda qilib, o‘z ishonchini va hurmat–ehtiromini bildirish uchun beradigan narsa. Tavrot qonuni bo‘yicha ikkita nazr turi bo‘lib, bular quyidagilardir:

DON NAZRI

Don nazri a’lo sifatli bug‘doy unidan yoki turli tarzda tayyorlangan xamirturushsiz nondan iborat edi[1]. Bu nazrning bir qismi yoki hammasi qurbongohda kuydirilgan, kuydirilmagan qismi esa ruhoniylarga berilgan. Don nazri odatda boshqa biror qurbonlikka, misol uchun, kuydiriladigan yoki tinchlik qurbonligiga qo‘shib keltirilgan[2].

[1] Levilar 2:1-16, 6:14-23 [2] QURBONLIK so‘ziga qarang.

SHAROB NAZRI

Odatda sharob nazri kuydiriladigan yoki tinchlik qurbonligiga qo‘shib keltirilardi. Sharob nazri qurbongohga quyilganda va qurbonlik kuydirilganda, Xudoga Yoqimli hid borardi[1].

[1] Chiqish 29:40-41 ga va QURBONLIK so‘ziga qarang.

NODON

AHMOQ, NODON so‘zlariga qarang.

OLIY KENGASH

Yangi Ahd davrida yahudiylarning siyosiy va diniy kengashi. Bu kengash bosh ruhoniylardan, Tavrot tafsirchilari hamda obro‘li odamlardan iborat edi. Oliy kengashning 70 ga yaqin a’zosi bor edi. Oliy ruhoniy kengashning boshlig‘i edi. Kengash a’zolari yahudiylarning ijtimoiy, siyosiy va dinga oid masalalarini hal qilish huquqiga ega edilar, ammo Oliy kengash chiqargan muhim qarorlar Rim hukumati tomonidan tasdiqlanishi kerak edi. Masalan, Oliy kengash birortasini o‘limga hukm qilishi mumkin edi, ammo faqatgina Rim hukumati mana shu hukmni ijro qila olardi. Yurtda tinchlikni saqlab turish uchun Oliy kengash yahudiylarning ham, Rim hukumatining ham manfaatini ko‘zlar edi.

OLIY RUHONIY

RUHONIY so‘ziga qarang.

OLTIN TUTATQI QURBONGOHI

QURBONGOH so‘ziga qarang.

OLTIN XONTAXTA

Akas yog‘ochidan yasalgan, usti oltin bilan qoplangan xontaxta. Bu xontaxta Muqaddas chodirning, keyinchalik esa Quddusdagi Ma’badning Muqaddas xonasida turar edi. Muqaddas nonlar mana shu xontaxtaning ustiga qo‘yilar edi[1].

[1] Chiqish 25:23-30, 26:35



OMMON XALQI

Bu xalq Ibrohimning jiyani Lut naslidan edi. Lutga qizlari sharob berib, mast qilib qo‘ygach, kenja qizi otasi yoniga kirib, otasidan homilador bo‘lgan va o‘g‘li Banommini tuqqan edi[1]. Banommidan Ommon xalqi kelib chiqdi. Ommon xalqi xudo Mo‘laxga sajda qilgan. Ular Iordan daryosining sharqida yashaganlar. Ommon xalqi Isroil xalqining dushmani bo‘lib, Filist xalqi bilan ittifoq tuzgan. Ommon yurtining poytaxti o‘sha davrda Ommon shahri bo‘lib, hozirda Iordaniya mamlakatining poytaxtidir.

[1] Ibtido 19:30-38

OMOLEK XALQI

Isroil xalqi Kan’on yurtini egallamasdan oldin o‘sha yerda yashagan xalqlardan biri. Omolek xalqi ko‘chmanchi xalq bo‘lib, asosan O‘lik dengizning janub va sharq tomonida yashagan. Isroil xalqi Misrdan chiqib kelayotganda, Omolek xalqi ularga hujum qilgan edi. O‘shandan boshlab Omolek xalqi Isroil xalqining dushmani bo‘lib qoldi[1]. Xudo Isroil xalqiga: “Omolek xalqini halok qilib, ularning nomini yer yuzidan o‘chiringlar”, deb amr bergan edi. Yahudo shohi Hizqiyo davridagina Isroil xalqi Xudoning bu amrini bajarib, Omolek xalqini qirib tashladi[2].

[1] Chiqish 17:8-16, Qonunlar 25:17-19, 1 Shohlar 15:2, 30:1-5 [2] 1 Solnomalar 4:43

ORAM

Bu nom Eski Ahdda oramiychada so‘zlashuvchi xalqlar yashaydigan bir nechta hududga nisbatan ishlatilgan. Bu hududlarning biri Furot daryosi bo‘yida, hozirgi Suriya mamlakatining shimolida va hozirgi Turkiyaning janubi–sharqida edi. Ibrohim payg‘ambar birmuncha vaqt aynan o‘sha hududda istiqomat qilgan, uning qarindoshlaridan ba’zilari o‘sha yerda yashab qolganlar. Furot daryosidan g‘arbga va janubga cho‘zilgan, Kan’on hududiga yaqin bo‘lgan yerlarga nisbatan ham Oram nomi ishlatilib, Damashq shahri bu yerlarning markazi hisoblangan. Bu hududlarning hammasi Iskandar Zulqarnayn tomonidan bosib olingandan keyin Suriya nomi bilan tanilgan. Yana SURIYA so‘ziga qarang.

ORAMIYCHA

Ibroniychaga yaqin bo‘lgan til. Davrlar o‘tgan sari bu til xalqaro tilga aylanib, hozirgi Yaqin Sharq deb ataladigan yerlarda savdo–sotiq, tijorat va ijtimoiy–siyosiy doiralarda ishlatiladigan til bo‘lib qoldi. Ossuriyaning tub aholisi oramiy tilida so‘zlashardi. Shu sababdan,

oramiy tili Ossuriya tomonidan bosib olingan yerlardagi xalqlarning, Ossuriya yurtida, keyinchalik esa Bobil va Fors yurtlarida yashagan ajnabiy asirlarning so‘zlashuv tiliga aylandi. Shuning uchun Eski Ahdning ba’zi bir qismlari oramiy tilida yozilgan[1]. Iso Masih davrida qadimgi Falastinda yashagan yahudiylar odatda oramiy tilida so‘zlashganlar. Yangi Ahdda oramiycha so‘zlar, iboralar va nomlar ko‘p uchraydi, ammo ular asl matnda yunoncha harflar bilan yozilgan.

[1] jumladan, Ezra 4:8-6:18, 7:12-26, Doniyor 2:4-7:28

ORAMIYCHA MATN

Eski Ahdning eng qadimiy to‘liq ibroniycha qo‘lyozmasi *Leningrad Kodeksi*dir. Bu qo‘lyozma taxminan milodiy 1000 yillarda ko‘chirilgan. Mazkur qo‘lyozmaning nashr qilingan nusxasi *Bibliya Xebraika Stutgartensiya* deb ataladi[1]. Eski Ahdning bu qo‘lyozmasidagi bir nechta parcha oramiy tilida yozilgan[2].

[1] IBRONIYCHA MATN iborasiga qarang.
[2] ORAMIYCHA so‘ziga qarang.

OSMON SHOHLIGI

Xudoning insonlar hayotidagi hukmronligiga va har bir yaratilgan mavjudotning oxiratda yangilanishiga ishora. Bu ibora faqatgina Matto kitobida ishlatilgan bo‘lib, “Xudoning Shohligi” ma’nosini bildiradi. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun XUDONING SHOHLIGI iborasiga qarang.

OSMON, SAMO

Muqaddas Kitobda bu so‘zlar ostida Xudo yaratgan osmon nazarda tutilgan[1]. Ammo osmon va samo so‘zlari ko‘pincha Xudoning va farishtalarning maskanini ham bildiradi[2]. Yangi Ahdda bayon qilinishicha, Iso Masih osmondan tushgan va o‘lib tirilgandan keyin yana osmonga ko‘tarilgan[3]. Oxiratda Iso osmondan kelib, o‘liklarni tiriltiradi[4]. Shu kuni Xudo solihlarga abadiy hayotni mukofot qilib beradi, ular Xudo bilan birga jannatda yashaydilar[5]. Bu dunyoda yashayotgan Isoning izdoshlari samoni haqiqiy vatan deb bilishlari[6], o‘sha vatanga ko‘z tikib yashashlari kerak[7].

[1] Ibtido 1:6-8, 14-18 [2] Ayub 22:12, Zabur 10:4 [3] Yuhanno 3:13, 6:41-51, 14:2-3, 20:17, Luqo 24:50-51 [4] 1 Salonikaliklar 4:16-17 [5] Matto 5:12, 25:34, 46, 1 Butrus 1:4, 2 Korinfliklar 5:1-2, Filippiliklar 3:13-14, Ibroniylar 12:22-24, Vahiy 21:1-4, 22:1-5 [6] Filippiliklar 3:20 [7] Matto 6:20-21, Kolosaliklar 3:1-2, Ibroniylar 11:13-16

OSSURIYA

Qadimgi qudratli shohlik. Uning poytaxti Naynavo[1] hozirgi shimoliy Iroqda joylashgan edi. Miloddan oldingi 722 yilda Ossuriyaliklar Isroilni, ya’ni shimoliy shohlikni bosib oldilar[2]. Ular Isroil xalqining aksariyat qismini asir qilib olib ketdilar[3]. Ossuriya shohi boshqa xalqlarni Isroil yurtiga majburlab ko‘chirdi[4]. Isroil yurtida qolgan odamlar esa o‘sha ajnabiylar bilan quda–andachilik qildilar. Ularning avlodlari Yangi Ahdda aytib o‘tilgan Samariyaliklardir[5]. Miloddan oldingi 612 yilda ittifoqdosh dushman lashkarlari Bobil va Midiya boshchiligida Naynavoni vayron qildilar. Ko‘p o‘tmay Ossuriya shohligi o‘z mustaqilligini yo‘qotdi.

[1] Nineviya nomi bilan ham ma’lum [2] ISROIL so‘ziga qarang. [3] 4 Shohlar 17:1-6 [4] 4 Shohlar 17:24 [5] SAMARIYALIK so‘ziga qarang.

OTA, OTAM XUDO, OTAMIZ XUDO…

XUDONING NOMLARI iborasiga qarang.

PARIZ XALQI

Isroil xalqi Kan’on yurtini egallamasdan oldin o‘sha yerda yashagan xalqlardan biri. Pariz xalqi Kan’onning o‘rta qismidagi qirli joylarda yashagan. Yana KAN’ON XALQI, KAN’ON XALQLARI, KAN’ONDAGI XALQLAR iboralariga qarang.

PARVARDIGOR EGAM, PARVARDIGOR EGAMIZ

XUDONING NOMLARI iborasiga qarang.

PARVARDIGORI OLAM

XUDONING NOMLARI iborasiga qarang.

PAYG‘AMBAR

Xudoning xabarini odamlarga yetkazadigan inson. Eski ahd davrida Isroil xalqining payg‘ambarlari xalqni gunohdan tavba qilishga va Xudoga yuz burishga da’vat qilganlar. Ba’zan ular hatto hukmdorlarning va ajnabiy xalqlarning gunohlarini fosh qilib, ularni ham to‘g‘ri yo‘ldan yurishga chaqirganlar. Payg‘ambarlar o‘z xabarlari orqali kelajakda sodir bo‘ladigan voqealar haqida bashorat qilganlar, odamlarga dalda berganlar va yuz beradigan falokatlardan xalqni ogohlantirganlar. Odatda ular xabarlarida turli ramziy obrazlardan foydalanganlar. Ba’zi payg‘ambarlarning yozib qoldirilgan bashoratlari, vahiylari va xabarlari keyinchalik Eski Ahd tarkibiga kiritilib, bu bitiklar o‘sha

payg‘ambarlarning nomlari bilan atalgan. Yangi Ahd davrida Xudo ba’zi masihiylarni payg‘ambarlik xizmatiga tayinlagan[1]. Bu payg‘ambarlar imonlilarga Xudoning so‘zini yetkazganlar[2]. Ba’zan ular Muqaddas Ruh ilhomi bilan bashorat ham qilganlar[3]. Muqaddas Kitobda soxta payg‘ambarlar haqida ham aytib o‘tilgan. Ular Xudodan xabar keltiryapmiz, deb odamlarni aldab, yo‘ldan urganlar.

[1] 1 Korinfliklar 12:28, Efesliklar 4:11-12
[2] 1 Korinfliklar 14:1-5, 29-33 [3] Havoriylar 11:27-28, 21:10-11

POKLANISH KUNI

BAYRAMLAR so‘ziga qarang.

PURIM BAYRAMI

BAYRAMLAR so‘ziga qarang.

QADIMIY LOTINCHA TARJIMA

IBRONIYCHA MATN iborasiga qarang.

QADIMIY SURYONIYCHA TARJIMA

IBRONIYCHA MATN iborasiga qarang.

QADIMIY YUNONCHA TARJIMA

IBRONIYCHA MATN iborasiga qarang.

QAROL

Xizmatkorning bir turi bo‘lib, shoh tomonidan majburiy xizmatga olingan, iqtisodiy jihatdan shohga qaram bo‘lgan shaxs.

QODIR XUDO

XUDONING NOMLARI iborasiga qarang.

QONUN

Ushbu tarjimada “qonun” yoki “qonunlar” so‘zlari ko‘pincha Xudoning Muso orqali Isroil xalqiga bergan qonun–qoidalariga ishora qiladi. Bu qonun–qoidalar Tavrotda yozilgan. Qonunlarda Xudoning Isroil xalqi bilan tuzgan ahd shartlari va qoidalari qayd etilgan.

Qonunlar o‘nta amr bilan boshlangan[1]. Bu amrlarni Xudo O‘z qo‘li bilan ikki tosh lavhaga yozgan. Bu lavhalar Ahd sandig‘ida saqlangan[2]. Qonunlarning to‘liq majmuasi Isroil xalqining diniy va ijtimoiy hayotiga oid ko‘plab batafsil qoidalarni o‘z ichiga olgan. Xudoga sajda qilish, qurbonliklar va nazrlar keltirish, poklik, Shabbat kuniga rioya qilish, bayramlarni nishonlash, vorislik, yo‘qolgan yoki o‘g‘irlangan narsalar, halol va harom jonivorlar, axloqiy hayotga oid yo‘l–yo‘riqlar va qoidalar shular jumlasidandir.

Isroil xalqi qonunlarni bajarish orqali Xudoga bo‘lgan sadoqatini yaqqol ko‘rsatardi[3]. Iso Masih, barcha qonunlar “Egangiz Xudoni butun qalbingiz bilan, jonu dilingiz bilan, butun ongingiz bilan seving” va “O‘zgani o‘zingizni sevganday seving” degan amrlarda mujassamdir, deb aytgan[4]. Qonunlar Xudoning ezgulik va solihlik mezoni bo‘lib xizmat qiladi, insonning gunohkor ekanligini ochiq–oydin ko‘rsatadi[5].

[1] Chiqish 20:1-17 [2] Chiqish 25:16, 34:1, 28
[3] Qonunlar 7:7-15, 8:1-20 [4] Matto 22:35-40, Luqo 10:25-37 [5] Rimliklar 7:7-13

QOYA

XUDONING NOMLARI iborasiga qarang.

QUDDUS

Quddus O‘rta yer dengizidan qariyb 50 kilometr sharqda, tog‘ tizmasida joylashgan. Ilgari bu shahar tog‘dagi qal’a bo‘lgan, keyinchalik esa kengayib, atrofdagi qirlar va vodiylarni o‘z ichiga olgan. Miloddan oldingi 1000 yilda shoh Dovud Quddusni bosib olgandan keyin shahar Isroil xalqi uchun siyosiy va diniy markazga aylangan.

Qadimda Quddus shahrining nomi Salim edi. Salim shohi va ruhoniysi Maliksidiq Ibrohim bilan uchrashib, uni duo qilgan[1]. Keyinroq Xudo Ibrohimga o‘g‘li Is’hoqni shu shaharga yaqin joyda qurbonlik qilishni buyurgan[2]. Isroil xalqi Kan’on yurtini bosib olgandan keyin Quddusni qo‘lga kiritgan, ammo shaharning tub aholisi — Yobus xalqi u yerda yashab qolavergan[3]. Dovud barcha Isroil qabilalarining shohi bo‘lgandan keyin Yobuslarning qal’asini, ya’ni Quddusni[4] qo‘lga kiritgan va uni o‘z shohligining poytaxti qilgan[5]. Dovud Ahd sandig‘ini Quddusga keltirgan va Quddus Ahd sandig‘ining doimiy maskani bo‘lib qolgan[6]. Dovud Quddusda Xudoga atab Ma’bad qurmoqchi bo‘lgan, ammo Ma’badni Dovud emas, balki uning o‘g‘li shoh Sulaymon qurgan[7].

Miloddan oldingi 586 yilda Quddusni Bobil qo‘shini bosib olgan. Shahardagi binolar va Ma’bad talon–taroj qilinib, ularga o‘t qo‘yilgan, shahar devorlari buzilgan, aholisi esa asirlikka olib ketilgan[8]. Miloddan oldingi 538 yilda, Fors imperiyasi hukmronligi davrida yahudiylarga o‘z vataniga qaytishga va Ma’badni qayta qurishga ijozat berilgan[9]. Miloddan oldingi 445 yilda Fors shohi amaldori Naximiyo Quddusga borib, shahar devorlarining qurilishiga boshchilik qilgan. Miloddan oldingi 332 yilda Quddus shahri hech bir qarshiliksiz Iskandar Zulqarnaynga taslim bo‘lgan. Miloddan oldingi 63 yilga qadar,

taxminan 100 yil davomida Quddus shahri mustaqil yahudiy davlatining poytaxti bo‘lgan. Miloddan oldingi 63 yilda esa bu yurt Rim imperiyasi tomonidan bosib olingan va unga qaram bo‘lib qolgan.

Iso Masih, yahudiy urf–odatlariga ko‘ra, belgilangan diniy bayramlar paytida Quddusni ziyorat qilgani borardi[10]. U Quddusda Fisih bayrami ayyomida qo‘lga olingan va o‘limga hukm qilinib, xochga mixlangan. Iso Masih o‘likdan tirilgandan keyin Quddusda shogirdlariga zohir bo‘lgan. Iso ularga, Xudo sizlarni Muqaddas Ruhga cho‘mdirmaguncha Quddusda qolinglar, deb buyurgan[11]. Isoning izdoshlari birinchi marta Quddusda quvg‘in qilinganlar[12]. Milodiy 66 yilda Yahudiya viloyatining aholisi Rim hukumatiga qarshi isyon ko‘targan. Milodiy 70 yilda Rimliklar Titus boshchiligida Quddusni yana qo‘lga kiritib, shaharni va Ma’badni yer bilan yakson qilganlar. Shunday qilib, Isoning bashorati amalga oshgan[13].

Samoviy Quddus deganda Xudoning samodagi maskani nazarda tutiladi, kelajakda esa bu maskan yer yuzida bo‘ladi[14].

[1] Ibtido 14:17-20, Ibroniylar 7:1-2 [2] Ibtido 22:1-2 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang. [3] Hakamlar 1:21 [4] SION so‘ziga qarang. [5] 2 Shohlar 5:6-7 [6] 2 Shohlar 6:1-19 [7] 2 Shohlar 7:1-17, 3 Shohlar 5:1-6:38 [8] 4 Shohlar 25:8-17, 2 Solnomalar 36:13-21 [9] Ezra 1:1-11 [10] Luqo 2:41-42, Yuhanno 4:45, 7:2-4, 10, 10:22-23 [11] Havoriylar 1:3-5, 2:1-13 [12] Havoriylar 8:1-3 [13] Luqo 19:41-44, 21:5-6 [14] Ibroniylar 12:22, Vahiy 21:2-3

QUMRON QO‘LYOZMALARI

IBRONIYCHA MATN iborasiga qarang.

QURBONGOH

Toshdan yoki loydan qurilgan maxsus joy. Qadimda odamlar qurbongohlarda nazrlar va qurbonliklar kuydirganlar, tutatqi tutatganlar. Qurbongoh muqaddas hisoblangan.


Muqaddas Kitobning ko‘p o‘rinlarida “qurbongoh” so‘zi Muqaddas chodirning hovlisidagi, keyinchalik esa Ma’badning hovlisidagi bronza qurbongohga nisbatan ishlatilgan. Ruhoniylar Isroil xalqi uchun har xil qurbonliklar va nazrlar kuydirishda bronza qurbongohdan foydalanganlar.





BRONZA QURBONGOH, QURBONLIK KUYDIRILADIGAN QURBONGOH

Bronzadan yasalgan bu qurbongoh Muqaddas chodirning hovlisida, keyinchalik esa Ma’bad hovlisida o‘rnashtirilgan edi.



TUTATQI QURBONGOHI, OLTIN TUTATQI QURBONGOHI

Akas yog‘ochidan yasalgan, usti toza oltin bilan qoplangan qurbongoh. Bu qurbongoh Muqaddas chodirning, keyinchalik esa Ma’badning Eng muqaddas xonasi oldida o‘rnashtirilgan edi. Ruhoniylar bu qurbongoh ustida Isroil xalqi uchun tutatqi tutatardilar.



QURBONLIK

Xudoga sajda qilish uchun buqa, qo‘zi, echki, kaptar yoki musicha kabi jonivorlar qurbonlik qilinardi. Jonivor so‘yilgandan keyin, uning bir qismi Xudoga Yoqimli hid bo‘lishi uchun nazr sifatida qurbongohda kuydirilgan. Qolgan qismi esa ruhoniylarga berilgan yoki sajda qiluvchilar tomonidan yeyilgan. Isroil xalqi Xudoga shukrona aytish, Xudodan marhamat va baraka tilash, gunohlari uchun kechirim so‘rash maqsadida qurbonliklar keltirgan. Eski Ahdda aytib o‘tilgan beshta qurbonlik turi quyidagicha:

KUYDIRILADIGAN QURBONLIK, KUYDIRILADIGAN NAZR

Bu turdagi qurbonlikning hamma a’zolari qurbongohda batamom kuydirilgan. Bunday qurbonlikni keltirishdan asosiy maqsad — qurbonlikni kuydirganda chiqayotgan hid bilan Xudoni mamnun qilish edi. Levilar 1:1-17, 6:8-13 ga qarang.

TINCHLIK QURBONLIGI, TINCHLIK NAZRI

Bu turdagi qurbonlikning bir qismi qurbongohda kuydirilgan, qolgani esa ruhoniylarga berilgan yoki sajda qiluvchilar tomonidan yeyilgan. Xudoga shukrona tariqasida yoki Undan yordam, marhamat va baraka so‘rab keltirilgan bu qurbonlik turi boshqa qurbonliklarga qaraganda ko‘p qilingan. Ko‘pincha Eski Ahdning ibroniycha matnida “tinchlik qurbonligi” iborasi “qurbonlik” so‘zi bilan ifodalangan. Levilar 3:1-17, 7:11-21 ga qarang.

SHUKRONA QURBONLIGI, SHUKRONA NAZRI

Tinchlik qurbonligi va tinchlik nazri shu nomlar bilan ham atalgan. Levilar 7:11-15 ga qarang.

GUNOH QURBONLIGI

Bu turdagi qurbonlikni birortasi bilmay qilgan gunohi uchun Xudodan kechirim so‘rab keltirgan. Bulg‘angan odamni poklash uchun keltiriladigan bu qurbonlik poklanish marosimining bir qismi edi. Qurbonlikning qoni bir necha usul bilan poklanish marosimida ishlatilgan. Qurbonlikning bir qismi qurbongohda kuydirilgan, qolgani esa yo ruhoniylarga berilgan yoki qarorgoh tashqarisida halol joyda kuydirib yuborilgan. Levilar 4:1-5:13, 6:24-30 ga qarang.

AYB QURBONLIGI

Gunoh qurbonligining maxsus turi. Biror odam boshqasini aldaganda, o‘g‘rilik qilganda yoki boshqa birovga moddiy zarar yetkazganda ayb qurbonligini keltirgan. Birortasi Xudoga bag‘ishlangan narsani o‘zlashtirib olganda ham ayb qurbonligini keltirishi kerak edi. Aybdor odam bu qurbonlikni keltirish bilan birga, o‘g‘irlagan yoki zarar yetkazgan narsaning to‘liq narxini, buning ustiga o‘sha narsa qiymatining 20 foizini jarima sifatida to‘lagan. Levilar 5:14-6:7, 7:1-10 ga qarang.

QURBONLIK KUYDIRILADIGAN QURBONGOH

QURBONGOH so‘ziga qarang.

QUROLBARDOR

Qadimda lashkarboshining qurollarini ko‘tarib yuruvchi jangchi.

QUR’A

Qur’a tashlashda yog‘och bo‘laklari yoki toshlar ishlatilgan bo‘lib, shu orqali Xudoning xohish–irodasi aniqlangan. Ba’zan odamlar qur’a tashlab, Xudodan biror ishni qanday yoki qachon qilish kerakligini so‘rashgan.

QUTLUG‘ KECHA

Iso Masih O‘z o‘limidan oldin shogirdlari bilan birga Fisih taomini tanovul qilgan[1]. O‘sha kecha Iso shogirdlariga, sizlar birga taom tanovul qilganingizda, Meni xotirlanglar, deb buyurgan. Iso Masihning izdoshlari Uning bu amriga itoat etib, tez–tez yig‘ilib turardilar va birgalikda taom tanovul qilardilar. Ular taomni tanovul qilganlarida, Iso buyurganday non sindirib yerdilar va sharobdan ichardilar[2]. Shu tarzda ular Iso Masihga o‘z ehtiromini ko‘rsatib, Iso ularning gunohlari uchun qurbon bo‘lganiga ishonganlarini tasdiqlar edilar[3], Iso O‘z sevgisini qanday namoyon qilganini xotirlar edilar. Iso ularni qanday sevgan bo‘lsa, shogirdlar ham bir–birlarini shunday sevishlari kerak edi[4].

[1] Luqo 22:14-20 [2] Havoriylar 2:42, 46, 20:7 [3] 1 Korinfliklar 10:16-17, 21, 11:17-34 [4] Yuhanno 15:9-17

QO‘L TEGIRMON

Ikkita yassi tosh. Bu toshlar yordamida don yanchilib, un qilinar edi. Ustki tosh odatda dumaloq bo‘lib, o‘rtasida teshigi bor edi. Shu teshikdan don solinardi. Ustki toshning dastasi bo‘lgan. Shu dastadan ushlab, ustki toshni ostki tosh ustida yurg‘izganlar.





QO‘ZI

Qadimda qo‘zi va boshqa halol hayvonlar Xudoga qurbonlik qilingan[1]. Tavrotga ko‘ra, Isroil xalqi Muqaddas chodirda, keyinchalik esa Ma’badda qurbonliklar keltirishi kerak edi. Ular har kuni ertalab va kechqurun, yangi oy chiqqanda va belgilangan bayramlarda qo‘zilarni qurbonlik qilardilar[2]. Har yili nishonlanadigan Fisih bayramida hamma o‘z uyida olovda pishirilgan qo‘zi go‘shtini iste’mol qilardi[3]. Shunday qilib, ular Xudo Isroil xalqining to‘ng‘ich o‘g‘illarini Misrdagi oxirgi falokatdan Fisih qurbonligi orqali qutqarganini eslashardi[4]. Odamlar har qanday nopoklikdan tozalanish uchun o‘tkaziladigan poklanish marosimlarida ham qo‘zilarni qurbonlik qilishardi[5].

Ishayo payg‘ambar odamzodning gunohini o‘z bo‘yniga oladigan Xudoning quli haqida bashorat qilgan. Xudoning bu quli bo‘g‘izlanishga olib ketilayotgan qurbonlik qo‘zisiga o‘xshatilgan[6]. Yahyo payg‘ambar Iso Masihni butun dunyoni gunohlardan poklaydigan Xudoning Qo‘zisi deb ataydi[7]. Iso Masih Fisih bayrami ayyomida xochga mixlangan. Bir necha yillar o‘tib Pavlus, Iso Masih bizning Fisih qurbonligimiz bo‘ldi, deb ta’lim bergan[8]. Vahiy kitobida Iso Masih bo‘g‘izlangan Qo‘zi kabi tasvirlangan[9]. O‘sha Qo‘zi Xudoning dushmanlari ustidan g‘olib chiqadi va Xudo bilan birga abadiy hukmronlik qiladi[10].

[1] Ibtido 4:4, 15:9, 22:7 [2] To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun QURBONLIK va BAYRAMLAR so‘zlariga qarang. [3] Chiqish 12:1-13 [4] Chiqish 12:26-27 [5] Levilar 12:6-7, 14:10-14, 19-20 [6] Ishayo 53:6-7 [7] Yuhanno 1:29, 36 [8] 1 Korinfliklar 5:7 [9] Vahiy 5:6-14, 7:9-17 [10] Vahiy 17:14, 21:22-27, 22:1-5

RABBIMIZ ISONI XOTIRLASH UCHUN NON SINDIRISH

QUTLUG‘ KECHA iborasiga qarang.

RABBIY XUDO, RABBIM XUDO, RABBIMIZ XUDO

XUDONING NOMLARI iborasiga qarang.

RABBIY, RABBIM, RABBIMIZ...

XUDONING NOMLARI iborasiga qarang.

ROMLAR

Muqaddas chodirning maxsus yasalgan qismlari. Kumush tagliklarga o‘rnatilgan romlar tik qilib, yonma–yon qo‘yilardi. Chodirning ikki yon devori va orqa devori shu romlardan iborat bo‘lgan.



RUHONIY

Diniy xizmat va marosimlarni o‘tkazish uchun maxsus tayyorlangan kishi. Qadimgi Isroilda Tavrotga ko‘ra, ruhoniy Levi qabilasidan, Musoning akasi Horun avlodidan bo‘lishi shart edi. Ruhoniylar Muqaddas chodirda, keyinchalik Quddusdagi Ma’badda xizmat qilganlar. Ular sajda qilishda bosh bo‘lardilar, qurbonliklar keltirardilar, diniy rasm–rusum va marosimlar o‘tkazardilar. Ruhoniylarga xizmatda levilar yordam berardilar[1]. Muqaddas chodirning Muqaddas xonasiga, keyinchalik esa Ma’badning Muqaddas xonasiga faqatgina ruhoniylar kirishga haqli edilar. Ruhoniylarga Isroilda yer ulush qilib berilmagan edi. Tavrotga ko‘ra, ular keltirilgan qurbonliklardan ulush olib, kundalik ehtiyojlarini qondirishardi[2]. Ruhoniylarga odamlar orasidagi kelishmovchiliklarni hal qilish va Xudoning


qonun–qoidalarini xalqqa o‘rgatish vazifasi topshirilgan edi.

[1] LEVI, LEVILAR so‘zlariga qarang. [2] Sahroda 18:8-20

OLIY RUHONIY

Isroil xalqining eng muhim va eng yuqori lavozimdagi ruhoniysi. Oliy ruhoniy o‘z vazifasini ado etish uchun maxsus liboslar kiygan. Bu liboslar efod, rido, naqshli ko‘ylak, salla, belbog‘ va o‘n ikkita qimmatbaho tosh qadalgan ko‘krakpechdan iborat edi[1]. Oliy ruhoniy bir yilda bir marta — Poklanish kunida o‘zining eng muhim vazifasini bajargan. O‘sha kuni oliy ruhoniy Muqaddas chodirning, keyinchalik Ma’badning Eng muqaddas xonasiga kirgan. Bu xonada u o‘zini va Isroil xalqini gunohdan poklash marosimini o‘tkazgan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun BAYRAMLAR so‘zi ostida berilgan POKLANISH KUNI iborasiga qarang.

[1] Chiqish 28–bob va Levilar 8:6-9



RO‘ZA TUTISH

Muqaddas Kitobda ro‘za muhim ahamiyatga egadir. Inson ilojsiz vaziyatlarga tushib qolganda, savob uchun emas, balki toat–ibodatga berilib, Xudoning madadiga muhtojligini ko‘rsatish maqsadida ro‘za tutadi. Insonning hayotida jiddiy muammolar paydo bo‘lganda ovqat yeyish kabi jismoniy ehtiyojlar ahamiyatsiz bo‘lib ko‘rinadi.

Tavrotga ko‘ra, Isroil xalqi gunohlaridan tavba qilganini ko‘rsatish uchun Poklanish kuni ro‘za tutishi kerak edi[1]. Shuningdek, Isroil xalqi Bobilda surgunda bo‘lganda ham, surgundan keyingi davrlarda ham qayg‘uli voqealarni xotirlash maqsadida har yili ro‘za tutgan. Ma’badning vayron qilinganini xotirlab ro‘za tutganlari buning bir misolidir[2].

Belgilangan ro‘zalardan tashqari, Isroil xalqi boshqa holatlarda ham ro‘za tutgan. Masalan, birortasi yaqin odamining o‘limidan keyin o‘z qayg‘usini ifoda etish[3], mushkul vaziyatda Xudodan yordam so‘rash[4], o‘z gunohidan tavba qilganini yoki boshqalarga hamdardligini ko‘rsatish maqsadida ro‘za tutgan[5]. Ro‘za odatda ibodat bilan bog‘liq bo‘lib, Xudodan yo‘l–yo‘riq olish va madad tilash uchun[6], birovning mushkulini oson qilish uchun tutilardi[7]. Isroil xalqi orasida, ro‘za tutgan odam Xudodan albatta javob oladi, degan qarash keng tarqala boshlagan edi[8]. Ammo Eski Ahd davridagi payg‘ambarlar bu qarashning mutlaqo noto‘g‘ri ekanini aytganlar. Ularning ta’kidlashicha, odam ro‘zani xudbin niyatda tutishi kerak emas, aksincha ro‘za paytida insonning o‘y–xayoli va xatti–harakatlari Xudoga manzur bo‘lishi shart[9].

Yangi Ahd davrida yahudiy din arboblari va ularning shogirdlari haftada ikki martadan ro‘za tutishgan. Ammo Iso Masihning shogirdlari Uning yer yuzidagi xizmati paytida ro‘za tutmaganlar, Iso osmonga ko‘tarilgandan keyin esa ro‘za tutadigan bo‘ldilar[10]. Iso Masihning ta’limoti bo‘yicha, odam boshqalarning e’tiborini o‘ziga jalb qilmasdan ro‘za tutishi kerak[11].

[1] Levilar 16:29-31, 23:26-29 [2] Zakariyo 7:3-5, 8:19 oyatlarga va Zakariyo 8:19 izohiga qarang.
[3] 2 Shohlar 1:12 [4] Naximiyo 1:4, Ester 4:3
[5] 1 Shohlar 7:6, Ezra 10:6, Naximiyo 9:1-2, Doniyor 9:3-4, Yunus 3:5-8 [6] 2 Shohlar 12:15-23, 2 Solnomalar 20:3-4, Ezra 8:21-23 [7] Ester 4:15-17, Zabur 34:13 [8] Ishayo 58:3 [9] Ishayo 58:3-12, Yeremiyo 14:10-12 [10] Mark 2:18-20, Havoriylar 13:2-3, 14:23 [11] Matto 6:16-18

SADDUQIY

Iso Masih davrida yahudiylarning muhim bir

diniy mazhabi. Bu mazhab asosan ruhoniylardan va zodagonlardan iborat edi. Sadduqiylar katta siyosiy kuchga ega bo‘lib, Ma’bad ma’muriyatiga ham hukmini o‘tkazardilar. Oliy kengash a’zolarining ko‘pchiligi Sadduqiylardan edi. Farziylardan farqli ravishda, ular og‘zaki tarqalgan urf–odatlarni qabul qilmasdilar, faqat Tavrotda yozilgan qonun–qoidalarga rioya qilardilar, o‘liklarning tirilishiga ham ishonmas edilar. Iso bilan Sadduqiylar orasida ko‘p kelishmovchiliklar bo‘lgan.

SAMARIYA

Miloddan oldingi 885-874 yillarda hukmronlik qilgan shoh Omri davridan boshlab, Samariya Isroilning, ya’ni shimoliy shohlikning[1] poytaxti bo‘ldi[2]. Eski Ahdda ba’zan Samariya degan nom Isroil shohligi o‘rnida ham ishlatilgan[3]. Yangi Ahdda esa bu nom ostida Iordan daryosining g‘arbidagi, Jaliladan janubdagi yerlar nazarda tutilgan. Samariya Rim imperiyasining Yahudiya viloyati hududida edi.

[1] ISROIL so‘ziga qarang. [2] 3 Shohlar 16:23-24 [3] 3 Shohlar 13:32, 4 Shohlar 17:24

SAMARIYALIK

Yangi Ahd davrida Samariyada tug‘ilgan odam[1]. Miloddan oldingi 722 yilda Ossuriyaliklar Isroilni, ya’ni shimoliy shohlikni bosib olgandan keyin aholisining aksariyat qismini asir qilib olib ketdilar. Samariya hududiga esa ajnabiy xalqlar majburan ko‘chirildi[2]. Bir necha asrlardan keyin yunonlar ham bu joylarga o‘rnashib olganlar. Shuning uchun Rim imperiyasi davrida Samariya aholisining etnik tarkibi aralash bo‘lgan. Samariyaliklar va yahudiylar orasida adovat bor edi. Samariyaliklar faqatgina o‘zlarining Tavrotini Xudo yuborgan muqaddas bitik deb bilardilar. Ularning Tavrot nusxasi yahudiylarning Tavrotidan farq qilar edi. Samariyaliklar Xudoga Quddusda emas, balki Garizim tog‘ida sajda qilganlar[3]. Ular taxminan miloddan oldingi 400 yilda Garizim tog‘ida ma’bad qurganlar. Bu ma’bad taxminan miloddan oldingi 128 yilda yahudiylar tomonidan vayron qilingan. Buning oqibatida yahudiylar va Samariyaliklar orasidagi adovat yanada kuchaygan.

[1] SAMARIYA so‘ziga qarang. [2] 4 Shohlar 17:1-6, 24-41 [3] Yuhanno 4:20 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

SAMO

OSMON, SAMO so‘zlariga qarang.

SAMOVIY XUDO

XUDONING NOMLARI iborasiga qarang.

SANDIQ

AHD SANDIG‘I iborasiga qarang.

SANDIQNING QOPQOG‘I

AHD SANDIG‘INING QOPQOG‘I iborasiga qarang.

SARDOBA

Yomg‘ir suvini to‘plash va saqlash uchun barpo qilingan sun’iy hovuz. Chuqur qazilgandan keyin chuqurning hamma yog‘iga toshlar zich qilib terib chiqilardi, toshlar usti suvalib, shu tariqa sardobalar yasalardi. Bundan tashqari, sardobalar katta qoyalarni o‘yib ham yasalardi.



SARVARI OLAM

XUDONING NOMLARI iborasiga qarang.

SEVMOQ

Ibroniy va yunon matnlarida “sevgi” tushunchasini ifodalaydigan bir nechta so‘z ishlatilgan bo‘lib, ular mazkur tarjimada “sevgi, muhabbat, sevmoq, yaxshi ko‘rmoq” kabi so‘zlar bilan berilgan. Muqaddas Kitobda bu so‘zlar nafaqat odamlarning o‘zaro munosabatini, balki ularning Xudo bilan bo‘lgan yaqin munosabatini ko‘rsatish uchun ham ishlatilgan. Odatda o‘zaro munosabat o‘rnatib, ahd[1] tuzgan ikki tomon bir–biriga nisbatan sadoqatli va iltifotli bo‘lishi talab etiladi.

Eski Ahdda buning eng yorqin misoli Xudoning Isroil xalqi bilan bo‘lgan munosabatidir. Isroil xalqi Xudoning sevgisini qozonmagan bo‘lsa ham, Xudo ularni qanchalik sevishini ko‘rsatish uchun ular bilan ahd tuzishga qaror qilgan[2]. Bu ahdning shartiga ko‘ra, Isroil

xalqi Egasi Xudoni butun qalbi bilan, jonu dili bilan, butun vujudi bilan sevishi va Uning amrlarini bajarishi kerak edi[3]. O‘sha amrlardan birida aytilishi bo‘yicha inson o‘zgani o‘zini sevganday sevishi kerak[4].

Iso Masih Xudoni va boshqalarni sevish haqidagi amrlarni Tavrotning eng muhim amrlari deb hisoblagan[5]. U O‘z shogirdlariga, bir–biringizni sevinglar, amrlarimga amal qilinglar, deb buyurgan[6]. Isoning O‘zi ham samoviy Otasini qanchalik sevishini ko‘rsatish uchun Uning amrlarini to‘liq bajargan[7].

Xudo butun odamzodga bo‘lgan sevgisini ko‘rsatish maqsadida bu dunyoga O‘zining yagona O‘g‘li Iso Masihni yuborgan edi. Iso Masih odamzodning gunohi uchun qurbon bo‘ldi. Isoga ishongan har bir inson gunohlaridan butunlay poklanadi va abadiy hayotga ega bo‘ladi[8]. Xudo sevgi manbai bo‘lgani uchun Unga ishonganlar ham Xudodan namuna olib, bir–birlarini yaxshi ko‘rishlari kerak[9].

[1] AHD so‘ziga qarang. [2] Qonunlar 7:6-9 [3] Qonunlar 6:5, 11:1 [4] Levilar 19:18 [5] Mark 12:28-34 [6] Yuhanno 13:34-35, 14:15, 21-24, 15:12, 17 [7] Yuhanno 14:31, 15:9-10 [8] Yuhanno 3:16, Rimliklar 5:8, 1 Yuhanno 4:9-10 [9] 1 Yuhanno 4:7-8, 11-12, 16, 19-21

SIDON

FINIKIYA so‘ziga qarang.

SINAGOGA

Yahudiylar toat–ibodat qilishlari, Muqaddas bitiklarni o‘qib–o‘rganishlari va diniy ta’lim olishlari uchun yig‘iladigan joy, ibodatxona. Sinagogalarda qurbonliklar keltirilmagan, qurbonliklar faqat Quddusdagi Ma’badda keltirilar edi.

SION

Shoh Dovud Yobus xalqidan tortib olgan Quddusning bir qismi Sion qal’asi deb atalardi[1]. Bu joy Dovud qal’asi deb nom oldi. Keyinchalik esa Ma’bad qurilgan tepalik Sion tog‘i deb ataladigan bo‘ldi. Eski Ahddagi she’riy parchalarda va payg‘ambarlar bitiklarida Sion so‘zi ko‘pincha Quddus shahriga yoki Xudoning xalqiga nisbatan ishlatilgan.

[1] 2 Shohlar 5:6-9

SIPOH

Qadimda shohning lashkari safida xizmat qilgan jangchi.

SOVURISH, SHOPIRISH



SOVUT

Tanani nayza, qilich yoki o‘q zarbidan saqlash uchun kiyiladigan zirhli harbiy kiyim. Sovutlar odatda hayvon terisidan qilingan, ammo ba’zan temir va bronzadan ishlangan. Temir va bronza sovutlar juda qimmat bo‘lgan. Kamonkashlar va aravakashlar jang paytida himoyalanish maqsadida sovut kiyganlar, chunki ularning qo‘llari band bo‘lgani uchun qalqon ko‘tara olmasdilar. Ba’zan jang otlariga ham sovut kiydirilgan.

SOYLIK

Ikki adir oralig‘idagi pastlik. Yaqin Sharqda ba’zi soyliklar vodiy kabi keng, ba’zilari esa jar kabi chuqur va tor bo‘ladi. Yog‘ingarchilik mavsumida soylikda suv oqadi, boshqa paytlarda esa suvi qurib qoladi.

SURGUN

Bu so‘z ostida odatda Isroil va Yahudo shohliklari dushmanlar tomonidan bosib olinib, aholisining aksariyat qismi boshqa yurtga surgun qilingan davr nazarda tutiladi. Muqaddas Kitobda bayon qilinishicha, Isroil va Yahudo xalqlari Xudoning hukmi oqibatida surgun qilinganlar, chunki ular Xudoning Muso orqali tuzgan ahdiga sodiq bo‘lmagan edilar[1].

Miloddan oldingi 722 yilda Ossuriya Isroilni, ya’ni shimoliy shohlikni bosib oldi. Ossuriyaliklar Isroil poytaxti Samariyani qo‘lga kiritgandan keyin yurt aholisining aksariyatini Ossuriyaning turli hududlariga asir qilib olib ketdilar[2]. Isroil yurtiga esa ajnabiy xalqlarni majburlab ko‘chirdilar[3].

Miloddan oldingi 605 yildan boshlab, Bobilliklar Yahudoga, ya’ni janubiy shohlikka qayta–qayta hujum qildilar. Bu hujumlar oqibatida ular ba’zi yahudiylarni Bobilga

asirlikka olib ketdilar. Doniyor payg‘ambar deb tanilgan yosh yigit ham mana shu asirlar orasida edi[4]. Nihoyat, miloddan oldingi 586 yilda Bobilliklar Yahudo poytaxti Quddusni qo‘lga kiritib, uni vayron qildilar[5]. Yurt aholisining aksariyatini asir qilib olib ketdilar[6]. Asirga olinmagan yahudiylar Misrga qochib bordilar[7].

Yahudiylar Bobil surgunida bo‘lganlarida ham o‘zlariga uy qurganlar, tijorat va dehqonchilik bilan shug‘ullanganlar. Ular o‘z diniy urf–odatlariga rioya qilgan holda, milliy o‘zligini saqlab qolganlar. Doniyor va Hizqiyol payg‘ambarlar mana shu surgun davrida faoliyat ko‘rsatganlar. Keyinchalik Yahudo yurti Forslar hukmronligi ostida bo‘lganda, yahudiylardan ba’zilari Zarubabel va Ezra boshchiligida Yahudoga qaytib borganlar va Quddusda Ma’badni qayta qurishni boshlaganlar[8]. Oradan yillar o‘tib, Fors shohi xizmatidagi yahudiy amaldori Naximiyo ham Yahudoga qaytgan va Quddus devorlarini qayta qurish ishlariga boshchilik qilgan[9].

Ko‘p yahudiylar ona yurtlaridan uzoqda yashashda davom etaverganlar. Jumladan, Ester kitobida Fors shohligida yashagan yahudiylar to‘g‘risida hikoya qilingan. Bu voqealar miloddan oldingi beshinchi asrda Fors shohligining poytaxti Shushanda bo‘lib o‘tgan. Bobil va Misrdagi Iskandariya shaharlari uzoq yillar davomida yahudiylarning diniy ta’lim markazlari bo‘lib xizmat qilgan.

[1] 4 Shohlar 17:7-23, 24:1-4, 2 Solnomalar 36:13-21, Yeremiyo 25:1-11 [2] 4 Shohlar 17:5-6 [3] 4 Shohlar 17:24 [4] Doniyor 1:1-6 [5] 4 Shohlar 24:20-25:17, Yeremiyo 52:1-16 [6] 4 Shohlar 24:13-16, 25:11-12, 2 Solnomalar 36:20, Yeremiyo 52:15, 28-30 [7] 4 Shohlar 25:25-26, Yeremiyo 43:1-7 [8] Ezra 1:1-5, 2:1-2, 70, 7:1-7 [9] Naximiyo 1:1-6:16

SURIYA

Muqaddas Kitobda Furot daryosining g‘arb tomonidagi hududga nisbatan ishlatilgan nom. Bu yerlar hozirgi Suriya mamlakatining bir qismini, Turkiyaning janubi–sharq tomonini va Livanni o‘z ichiga olgan. Miloddan oldingi 332 yilda Iskandar Zulqarnayn bu yerlarni bosib olgan edi. Iskandarning o‘limidan keyin Suriyada yunonlar sulolasi hukmronlik qilgan. Miloddan oldingi 64 yilda Suriya Rim imperiyasi tomonidan bosib olingan. Yunon va Rim hukmronliklari davrida Suriyaning poytaxti Antioxiya shahri bo‘lgan. Bu shahar hozirgi Turkiya mamlakatining Antakiya shahriga yaqin edi. Suriyaning yunonlar istilosidan oldingi tarixi haqida to‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun ORAM so‘ziga qarang.

SUVGA CHO‘MDIRMOQ, SUVGA CHO‘MDIRILMOQ

Muhim diniy marosimlardan biri bo‘lib, bu marosim orqali inson o‘zini Xudoga bag‘ishlaganini ko‘rsatardi. Tavrot qonunlari bo‘yicha, inson nopoklikdan tozalanish uchun suv bilan yuvinib, poklanish marosimini o‘tkazar edi[1]. Keyinchalik, Iso Masih davrida Yahyo payg‘ambar odamlarni suvga cho‘mdirilishga da’vat etgan. Bu suvga cho‘mdirilish marosimi, insonning gunohdan yuz o‘girganini va hayotini Xudoga bag‘ishlab, Unga itoatkorlik bilan yashashga qaror qilganini bildiradi. Iso Xudoning irodasini to‘la bajarish uchun Yahyo tomonidan suvga cho‘mdirilgan[2]. Iso butun yurt bo‘ylab ta’lim berib yurganda, uning shogirdlari ham Yahyoga o‘xshab odamlarni suvga cho‘mdirar edilar[3].

Iso Masih osmonga ko‘tarilib ketishidan oldin shogirdlariga: “Boringlar, barcha xalqlardan shogird orttiringlar. Ularni Ota, O‘g‘il va Muqaddas Ruh nomi bilan suvga cho‘mdiringlar”, deb amr bergan[4]. O‘sha paytdan beri suvga cho‘mdirilish marosimi Isoning o‘limi va tirilishining timsoli bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. Suvga cho‘mgan inson eski hayoti uchun o‘lib, yangi hayot uchun tirilgan hisoblanadi[5]. Suvga cho‘mdirilish yana imonlilar Isoning qoni orqali gunohdan poklanganining ham timsolidir[6].

[1] Misol uchun, Chiqish 29:1-4, 30:17-21, Levilar 14:8-9, Sahroda 8:7 ga qarang, yana Zabur 50:4, Hizqiyol 36:25 ga qarang. [2] Matto 3:13-15 [3] Yuhanno 3:22-26, 4:1-3 [4] Matto 28:18-20 [5] 1 Butrus 3:21, Rimliklar 6:1-5, Kolosaliklar 2:12 [6] Havoriylar 22:16, 1 Yuhanno 1:7, Ibroniylar 10:10, 22

SUYANGAN QOYA

XUDONING NOMLARI iborasiga qarang.

TAVROT

“Tavrot” so‘zi ibroniycha “to‘rah” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, ma’nosi “qonun” demakdir. Ba’zan ibroniycha “to‘rah” so‘zi tor ma’noda Muqaddas Kitobning dastlabki beshta kitobiga — Ibtido, Chiqish, Levilar, Sahroda, Qonunlarga nisbatan ishlatiladi. Ushbu tarjimada ham “Tavrot” so‘zi odatda Muqaddas Kitobning dastlabki beshta kitobiga ishora qiladi. Bu

kitoblarda dunyoning yaratilishi, Isroil xalqining Muso boshchiligida Misrdan chiqishi, Xudo Muso orqali Isroil xalqiga bergan qonunlar va ko‘plab voqealar bayon etilgan. Tavrot kitoblarining muallifi Muso payg‘ambardir. Shu sababdan ba’zan Tavrot “Musoning Tavrot kitobi”, “Musoning kitobi” yoki “Musoning qonuni” deb ataladi.

TAVROT TAFSIRCHISI

Musoning qonunlarini mukammal bilgan ziyoli odam. Tavrot tafsirchilari Xudoning qonunlaridan xalqqa ta’lim berganlar. Ularning ba’zilari ibroniycha Muqaddas bitiklardan nusxa ko‘chirish bilan shug‘ullanganlar. Tavrot tafsirchilari Isroil xalqi orasida obro‘–e’tiborga ega bo‘lib, jamiyatga kuchli ta’sir ko‘rsatganlar. Muqaddas Kitobda tilga olingan tafsirchilar orasida eng ko‘zga tashlanadigani ruhoniy Ezradir. Yangi Ahd davrida ba’zi tafsirchilar Oliy kengash a’zolari bo‘lganlar.

TINCHLIK QURBONLIGI, TINCHLIK NAZRI

QURBONLIK so‘ziga qarang.

TIR

FINIKIYA so‘ziga qarang.

TUTATQI QURBONGOHI

QURBONGOH so‘ziga qarang.

TO‘NG‘ICH O‘G‘IL

Qadimda to‘ng‘ich o‘g‘il yuqori maqomga ega edi. Odatda to‘ng‘ich o‘g‘il duo qilinganda, unga alohida baraka tilanardi[1]. To‘ng‘ich o‘g‘il ukalariga qaraganda ikki hissa ko‘proq meros olardi[2]. Otasining vafotidan keyin to‘ng‘ich o‘g‘il oila boshlig‘i hisoblanardi.

Tavrotga ko‘ra, Isroil xalqining har bir oilasidagi to‘ng‘ich o‘g‘il Xudoga tegishli bo‘lib, Unga bag‘ishlanishi kerak edi[3]. Barcha to‘ng‘ich o‘g‘illarning o‘rniga levilar Muqaddas chodirda, keyinchalik esa Ma’badda xizmat qilganlar[4]. To‘ng‘ich o‘g‘ilni qaytarib sotib olishning ramzi sifatida ruhoniylarga pul nazr qilib berilardi[5]. Xudo Isroil xalqining to‘ng‘ich o‘g‘illarini Misrdagi oxirgi falokatdan Fisih qurbonligi orqali qutqarganini o‘sha nazr eslatib turardi[6].

[1] Ibtido 27:1-40, 48:12-20 [2] Ibtido 25:29-34, Qonunlar 21:15-17 [3] Chiqish 13:1-2, 11-16 [4] Sahroda 3:11-13, 40-41 [5] Sahroda 18:15-16 [6] Chiqish 12:26-27

UZUM SIQISH CHUQURI



UCHRASHUV CHODIRI

Muqaddas chodirning yana bir nomi[1]. Ammo Chiqish 33:7-11 da “Uchrashuv chodiri” iborasi Muqaddas chodirni emas, balki Muso payg‘ambar Isroil qarorgohidan tashqarida qurdirgan boshqa bir chodirni bildiradi. O‘sha paytda Muqaddas chodir hali yasalmagan edi[2]. Odamlar Muso orqali Egamizdan maslahat so‘rash niyatida qarorgoh tashqarisidagi chodirga kelganlar. Egamiz o‘sha chodirda Musoga gapirgan.

[1] MUQADDAS CHODIR iborasiga qarang. [2] Chiqish 36:8-38

VALIY

Ibroniychadan so‘zma–so‘z tarjimasi *ko‘radigan odam*. Odatda payg‘ambarni valiy deb atashardi[1]. Valiylar Xudodan keladigan vahiyni ko‘rish va eshitish laYoqatiga ega edilar.

[1] 1 Shohlar 9:9

XAMIRTURUSHSIZ NON BAYRAMI

BAYRAMLAR so‘ziga qarang.

XAYIN XALQI

Isroil xalqi Kan’on yurtini egallamasdan oldin o‘sha yerda yashagan xalqlardan biri. Yana KAN’ON XALQI, KAN’ON XALQLARI, KAN’ONDAGI XALQLAR iboralariga qarang.

XET XALQI

Eski Ahd davrining boshida bu nom Kan’on naslidan bo‘lgan Xetning avlodiga nisbatan ishlatilgan[1]. Ibrohim payg‘ambar yashagan zamonda Kan’on yurtida bir nechta xalqlar istiqomat qilar edi[2]. Ulardan biri Xet xalqi edi. Xet xalqidan bo‘lgan Efro‘n ismli bir odam Ibrohimga Sorani dafn etish uchun yer sotgan edi[3]. Keyinchalik Isroil xalqi Kan’onni bosib olganda, Xet xalqini ham mag‘lub qilgandi. Shoh Sulaymon

Xet avlodlarini qarol qilib ishlatgan[4].

Qadimda hozirgi Suriyaning shimolida yashagan boshqa bir xalq ham “Xet xalqi” deb atalgan[5]. Miloddan oldingi o‘n yettinchi asrdan o‘n ikkinchi asrgacha bu Xet xalqining shohligi buyuk bir shohlik bo‘lib, katta hududni egallagan. Bu hudud hozirgi Turkiyadan janub tomonga, Suriyagacha cho‘zilgan edi. Keyinchalik Ossuriya Xet xalqini mag‘lub qilib, ularning yerlarini bosib olgan.

[1] Ibtido 10:15 [2] KAN’ON XALQI, KAN’ON XALQLARI, KAN’ONDAGI XALQLAR iboralariga qarang. [3] Ibtido 23:1-20 [4] 3 Shohlar 9:20-21 [5] 3 Shohlar 10:29, 4 Shohlar 7:6

XILXONA

Qabriston hududidagi joy. Yillar, hatto asrlar davomida xilxonaga bir urug‘–aymoqqa qarashli marhumlar dafn etiladi[1].

[1] Ibtido 47:29-30

XIV XALQI

Isroil xalqi Kan’on yurtini egallamasdan oldin o‘sha yerda yashagan xalqlardan biri. Xiv xalqi Kan’on yurtining markaziy qismida yashagan. Yana KAN’ON XALQI, KAN’ON XALQLARI, KAN’ONDAGI XALQLAR iboralariga qarang.

XONTAXTA

OLTIN XONTAXTA iborasiga qarang.

XOCH

Rim imperiyasida o‘lim jazosining bir turi jazoga mahkum bo‘lgan odamni xochga mixlash edi. Uzun xodaga boshqa bir yog‘ochni ko‘ndalangiga mixlab yoki arqon bilan bog‘lab xoch yasalardi. Odatda jinoyatchi o‘zi mixlanadigan xochning ko‘ndalang yog‘ochini hukm ijro etiladigan joyga ko‘tarib olib borar edi[1]. Jinoyatchining qo‘llari va oYoqlari xochga mixlanardi, keyin xoch tik qilib, maxsus kovlangan chuqurga o‘rnatilardi. Xochga mixlangan odam nafas olishga nihoyatda qiynalardi. U juda qattiq azob chekib, qiynalib jon berardi. Bu jarayon bir necha soat, hattoki bir necha kun davom etardi. Ba’zan xochdagi odamning o‘limini tezlatish uchun sipohlar uning oYoqlarini urib sindirishar edi[2].

Xochga mixlash eng dahshatli va sharmandali jazo hisoblanar edi. Faqatgina qotillar, vahshiy jinoyatchilar va Rim imperiyasi dushmanlari shunday jazoga tortilar edi. Jinoyatchi ochiq joyda olomonning ko‘zi oldida yalang‘och holda jazolanardi[3]. Bundan maqsad jinoyatchini sharmanda qilish va jinoyatlarning oldini olish edi. Yahudiylar yog‘ochga qoqilgan odamni Xudo la’natlagan deb hisoblashardi[4]. Yangi Ahdda ba’zan “yog‘och” deyilganda “xoch” nazarda tutilgan[5].

[1] Luqo 23:26 ga va o‘sha oyatning ikkinchi izohiga qarang. [2] Yuhanno 19:31-33 [3] Yuhanno 19:23 [4] Qonunlar 21:23, Galatiyaliklar 3:13 [5] Havoriylar 5:30, 1 Butrus 2:24

XUDO

XUDONING NOMLARI iborasiga qarang.

XUDODAN QO‘RQISH

Har bir insonning muqaddas Xudoga munosabatini bildiradigan ibora. Insonning ishlarini, yaxshi yoki yomon bo‘lishidan qat’i nazar, hukm qiladigan — Xudo[1]. Xudodan qo‘rqadigan odam har doim Uning ulug‘vorligidan hayratlanadi. Bunday odam Xudodan qo‘rqish bilan birga Uni sevadi, natijada Xudoga sidqidildan ishonadi va Uning amrlariga bo‘ysunadi. Muqaddas Kitobga ko‘ra, Xudodan qo‘rqish donolikning va ilmu ma’rifatning boshidir, kamtarlik va hayot manbaidir[2]. Egamizdan qo‘rqqan inson yovuzlikdan yuz o‘giradi, to‘g‘ri yashaydi va Xudoning nomini ulug‘laydi[3]. Ishayo payg‘ambar bashorat qilgan solih hukmdorning yuksak fazilatlaridan biri Egamizdan qo‘rqishdir[4]. Bu solih hukmdor Iso Masih ekanligi keyinchalik ayon bo‘ldi.

[1] Voiz 12:13-14, 2 Korinfliklar 5:10 [2] Hikmatlar 1:7, 9:10, 14:26-27, 15:33, 22:4, Ayub 28:28 [3] Hikmatlar 3:7, 8:13, 14:2, Malaki 3:16 [4] Ishayo 11:2-3

XUDOLAR

Muqaddas Kitobda, odatda bu so‘z butparast xalqlar sig‘inadigan xudolarni bildiradi. Muqaddas Kitobda bayon qilinishicha, Egamiz Xudo barcha xudolardan ustun[1]. Bu “xudolar” behuda butlar deb ham ataladi[2], ba’zi bir oyatlarda esa jinlar deb tasvirlanadi[3].

[1] Misol uchun, Chiqish 12:12, 18:9-11 ga qarang. [2] Chiqish 20:3-5, Zabur 95:4-5, Ishayo 42:17, 44:6-20 [3] Qonunlar 32:16-17, Zabur 105:36-38, 1 Korinfliklar 10:19-20, yana JIN va FARISHTA so‘zlariga qarang.

XUDONING AZIZLARI, XUDONING AZIZ XALQI

Bu iboralarning so‘zma–so‘z tarjimasi “muqaddaslar” bo‘lib, Xudoga bag‘ishlangan, Uning xizmati uchun ajratilgan odamlar degan

ma’noni ifodalaydi. Bu iboralar Xudoga tegishli odamlarni bildirib, Eski Ahdda bir necha marta Isroil xalqiga nisbatan[1], Yangi Ahdda esa Iso Masihning izdoshlariga nisbatan ishlatiladi[2].

[1] Ishayo 63:18, Doniyor 7:18, 21, 8:24 [2] Havoriylar 9:13, 1 Korinfliklar 6:1, 2 Korinfliklar 1:1, Efesliklar 1:15, Filippiliklar 4:22, Vahiy 11:18

XUDONING NOMLARI

Muqaddas Kitobda Xudoga nisbatan bir necha ibroniycha va yunoncha nomlar, iboralar ishlatilgan. Eski Ahdda ibroniycha nomlar, Yangi Ahdda yunoncha nomlar qo‘llangan. Quyidagi ro‘yxatda Xudo nomlarining o‘zbekcha ekvivalenti keltirilgan, kerakli o‘rinlarda ibroniycha va yunoncha nomlar berilgan bo‘lib, ma’nolari izohlangan. Ba’zan quyidagi sabablarga ko‘ra, bu nomlar va iboralar boshqacha tarjima qilingan bo‘lishi mumkin: 1) Asl matnning ma’nosini to‘g‘ri tushunish uchun[1]. 2) O‘zbek tilidagi mavjud tabiiy iboralarni qo‘llash uchun[2]. 3) O‘zbekcha tarjima ravon chiqishi uchun[3].

[1] Masalan, Ibtido 4:1 da Xudoning “Egam” degan nomi “Xudo” deb tarjima qilingan, aks holda, kitobxon “Egam” so‘zini Momo Havo Odam Atoga nisbatan ishlatgan, deb noto‘g‘ri tushunishi mumkin. [2] Masalan, ibroniychadagi “Egamiz haqi” iborasi o‘zbekchaga “Xudo haqi” degan tabiiy ibora bilan tarjima qilingan. [3] Masalan, ba’zi hollarda ibroniycha va yunoncha matnda Xudoning nomlari ishlatilgan o‘rinlarda o‘zbekchada olmoshlar ishlatilgan, ibroniycha va yunoncha matndagi olmoshlar o‘rnida esa o‘zbekchada Xudoning nomlari ishlatilgan.

XUDO

Ibroniychada *El* yoki *Elohim*, yunonchada *Teos*. Bu nomlar butun koinotning yaratuvchisi Xudoga nisbatan ishlatilgan asosiy nomlardir.

EGAM, EGAMIZ…

Ibroniychada *YHVH*[1], yunonchada *Kurios*. Eski Ahdda *YHVH* Xudoning ismidir. Aslida ibroniycha so‘zlar unli harflarsiz yozilgan. Qadimgi ibroniy tilining qonuniyatiga muvofiq, ibroniycha so‘zlarning faqat undosh harflari yozilgan. Ibroniycha yozuvlarni o‘qiganlar qaysi o‘rinda qanday unli tovush talaffuz etilishi kerakligini bilardilar. Ammo hozirda *YHVH* undoshlari bilan qaysi unli tovushlar ishlatilgani ma’lum emas. Yahudiylar Xudoning ismini juda ham muqaddas deb bilganlari uchun, Eski Ahd davrining oxirlariga kelib[2], bu ismni aytmay qo‘ygan edilar. Ular Eski Ahdni o‘qiganlarida matndagi *YHVH* so‘zining o‘rniga “Egam, Xo‘jayinim” ma’nosini beradigan *Adonay*[3] so‘zini ishlata boshladilar. Yahudiy olimlari birinchi marta Eski Ahdni qadimgi yunon tiliga o‘girganlarida, *YHVH* so‘zini “Ega, Xo‘jayin” ma’nosini beradigan yunoncha *Kurios* so‘zi bilan tarjima qilganlar. O‘shandan beri Eski Ahdning ko‘p tarjimalarida *YHVH* so‘zi o‘rniga “Ega, Xo‘jayin” ma’nosini beradigan so‘z ishlatiladi. Mazkur tarjimada ham bu so‘z “Egam, Egamiz…” deb berilgan. Ko‘pchilik olimlar *YHVH* so‘zini ibroniychadagi *bor bo‘lmoq* fe’lining ilk shakli bo‘lishi mumkin, deb ta’kidlaydilar. Shu fikrga ko‘ra, *YHVH* so‘zi “U bordir”, ya’ni U abadiydir, hech qachon o‘zgarmaydi yoki “U bor bo‘lishga sababdir”, ya’ni har bir narsaning kelib chiqishiga sababchi Udir, degan ma’noni bildiradi.

Yangi Ahdda *Kurios* so‘zi aksariyat hollarda Iso Masihning unvoni sifatida ishlatilgan bo‘lib, mazkur tarjimada Rabbiy, Rabbim, Rabbimiz… deb berilgan[4]. Ba’zi hollarda *Kurios* so‘zi Yangi Ahdda Xudoga nisbatan ishlatilgan bo‘lib, Uning Eski Ahddagi ayrim fazilatlarini ifodalaydi. Bunday hollarda mazkur tarjimada *Kurios* so‘zi “Egamiz” deb berilgan. Yangi Ahdda kam ishlatilgan “Oliy hukmdor, xo‘jayin” ma’nosini bildiruvchi yunoncha *Despotes* so‘zi ham “Egamiz” deb tarjima qilingan.

[1] Yahveh *deb talaffuz qilingan bo‘lishi mumkin. [2] taxminan miloddan oldingi 400 yillar [3]* Adonay *ibroniychadagi* Adon *so‘zining maxsus ko‘plik shakli bo‘lib, faqat Xudoga nisbatan qo‘llaniladi. [4] RABBIY, RABBIM, RABBIMIZ… so‘zlariga qarang.*

RABBIY, RABBIM, RABBIMIZ…

Ibroniychada *Adon*, yunonchada *Kurios*. Eski Ahdda *Adon*[1] so‘zi ko‘pincha Xudoga nisbatan ishlatilgan ilohiy unvon bo‘lib, Xudo Isroil xalqining samoviy Shohi ekanligini bildiradi. Yangi Ahdda *Kurios* so‘zi Iso Masihga nisbatan ishlatilgan bo‘lib, Uning ilohiyligini va shoh sulolasiga mansubligini bildiradi. Shuning uchun mazkur tarjimada bu so‘z “Rabbiy”, “Rabbim Iso” yoki “Rabbimiz Iso” deb berilgan. *Adon* va *Kurios* so‘zlari unvon sifatida shohlarga, obro‘li muallimlar va payg‘ambarlarga izzat–hurmatni ifodalash uchun ham ishlatilgan. Bunday holatlarda bu unvonlar matnga to‘g‘ri keladigan so‘zlar[2] bilan tarjima qilingan. Yangi Ahdda biror kishi Iso Masihga *Kurios* deb murojaat qilganda mazkur tarjimada vaziyatga va matn mazmuniga

to‘g‘ri keladigan so‘z tanlangan.

[1] Adonay *ibroniychadagi* Adon *so‘zining maxsus ko‘plik shakli bo‘lib, faqat Xudoga nisbatan qo‘llaniladi. Bu so‘zning birlik shakllari* Adon *va* Adoniy *odatda odamga nisbatan ishlatiladi, ammo ayrim hollarda Xudoning unvoni ma’nosida kelgan. [2] masalan, janobi oliylari, hazrat*

EGAM XUDO, EGAMIZ XUDO…

Ibroniychada *YHVH El*-[1]. Buning so‘zma–so‘z tarjimasi *YHVH mening Xudoyim, YHVH bizning Xudoyimiz…*. Yangi Ahdning yunoncha matnida bu nom *Kurios ho Teos* deb berilgan. Yana EGAM va XUDO so‘zlariga qarang.

[1] Ibroniychada El *so‘zi qo‘shimchalar bilan ishlatiladi.*

PARVARDIGOR EGAM, PARVARDIGOR EGAMIZ

Ibroniychada *YHVH Elohim*. Yana EGAM va XUDO so‘zlariga qarang.

EGAM RABBIY, EGAMIZ RABBIY

Ibroniychada *Adonay YHVH*. Yahudiylar Eski Ahd bitiklarini o‘qiganlarida ibroniycha matndagi *YHVH*ni *Elohim* deb o‘qiganlar. Yana RABBIY, EGAM va XUDO so‘zlariga qarang.

RABBIY XUDO, RABBIM XUDO, RABBIMIZ XUDO

Ibroniychada *Adonay Elohim* yoki *Adonay El*-[1]. Yana RABBIY va XUDO so‘zlariga qarang.

[1] Ibroniychada El *so‘zi qo‘shimchalar bilan ishlatiladi.*

SARVARI OLAM

Ibroniychada *YHVH Sabaot*. *Sabaot* so‘zi qo‘shinlar ma’nosini beradi. *YHVH Sabaot* degan nom Egamiz yeru osmondagi qudratli qo‘shinning buyuk lashkarboshisi ekanligini bildiradi. Yangi Ahdning yunoncha matnida bu nom — *Kurios Sabaot*. Yana EGAM so‘ziga qarang.

PARVARDIGORI OLAM

Ibroniychada *Elohim Sabaot*, so‘zma–so‘z tarjimasi *qo‘shinlar Xudosi*. Ma’no jihatdan *YHVH Sabaot* iborasiga o‘xshaydi[1]. *Elohim Sabaot* degan nom Xudo yeru osmondagi qudratli qo‘shinning buyuk lashkarboshisi ekanligini bildiradi. Yana XUDO so‘ziga qarang.

[1] SARVARI OLAM iborasiga qarang.

QODIR XUDO

Ibroniychada *El Shadday* yoki *Shadday*. *Shadday* so‘zining ma’nosi aniq emas, lekin ko‘p olimlar bu so‘zni “tog‘ning Xudosi” deb izohlaydilar. Tog‘lar kuch–qudrat ramzi bo‘lgani uchun, ko‘p tarjimalarda bu so‘z Xudoning qudratini ifodalaydigan nom sifatida berilgan. Yangi Ahdda yunoncha *Pantokrator* so‘zi “Qodir Xudo” deb tarjima qilingan. Bu yunoncha so‘z “har narsaga qodir” degan ma’noni bildirib, ba’zan *Teos*, ya’ni Xudo so‘zi bilan birga qo‘llangan. Yunoncha matnda *dunamis*, ya’ni qudrat so‘zi ba’zan Xudoga nisbatan ishlatilgan. Bunday hollarda ham bu so‘z “Qodir Xudo” deb tarjima qilingan. Yana XUDO so‘ziga qarang.

XUDOYI TAOLO

Ibroniychada *El Elyon* yoki *Elohim Elyon*, so‘zma–so‘z tarjimasi *Eng yuksak Xudo*. Shuningdek, *Elyon* so‘zi alohida ham ishlatiladi, uning so‘zma–so‘z tarjimasi *eng yuksak Zot*. Bu so‘z Xudo eng buyuk, eng qudratli, butun koinot Hukmdori ekanligini bildiradi. *Elyon* aybsizlarni oqlaydi, fosiq va yovuzlarni jazolaydi. Yangi Ahdning yunoncha matnidagi *Hupsistos* so‘zi “Xudoyi Taolo” deb tarjima qilingan. *Hupsistos* so‘zi “eng yuksak Zot” degan ma’noni bildirib, ba’zan *Teos*, ya’ni Xudo so‘zi bilan birga qo‘llangan. Yana XUDO so‘ziga qarang.

SAMOVIY XUDO

Ibroniychadan va yunonchadan so‘zma–so‘z tarjimasi *osmon Xudosi*, *osmon va yer Xudosi* yoki *osmon Egasi*.

BARHAYOT XUDO

Ibroniychadan va yunonchadan so‘zma–so‘z tarjimasi *tirik Xudo*. Bu nom Xudo doimo harakatda ekanini, U O‘z xalqiga g‘amxo‘rlik qilayotganini bildiradi.

MUQADDAS XUDO

Ibroniychadan va yunonchadan so‘zma–so‘z tarjimasi *muqaddas Zot*. Xudoning bu nomini payg‘ambarlar, ayniqsa Ishayo payg‘ambar ko‘p ishlatgan. “Muqaddas Xudo” degan nom Isroil xalqining Xudosi butun borliqdan ustun va tengsiz ekanligini bildiradi. U tanho, haqiqiy Xudodir.

QOYA, SUYANGAN QOYA

Ibroniychadan so‘zma–so‘z tarjimasi *qoya*. Bu so‘z Xudoga umid bog‘laganlarni Uning O‘zi himoya qilishini, sog‘–omon saqlashini, Xudoning o‘zgarmasligini va tamomila ishonchliligini bildiradi.

OTA, OTAM XUDO, OTAMIZ XUDO…

Eski Ahdning ba’zi parchalarida Xudo Isroil xalqining Otasi, deb ta’riflangan[1]. Yangi Ahdda

esa Xudo O‘z xalqining Otasi ekanligi haqidagi tushuncha yanada yorqin ifodalangan. Iso Masih Xudoni Ota deb chaqirgan. Shu tariqa Iso O‘zini Xudoning yagona O‘g‘li ekanini, Otasi Xudo tomonidan bu dunyoga yuborilganini va U bilan yaqin munosabatda ekanini ta’kidlagan[2]. Shuningdek, Iso O‘z shogirdlariga ham Xudoni samodagi haqiqiy Ota deb bilishni o‘rgatgan. Isoga ishonib, Unga ergashganlar Xudo bilan yaqin munosabat o‘rnatib, Xudoning komil sevgisidan bahramand bo‘ladilar. Xudo mehribon otaday ularga g‘amxo‘rlik qiladi[3].

[1] Misol uchun, Ishayo 63:16, 64:8, Yeremiyo 3:19, Xo‘sheya 11:1 ga qarang. [2] Yana XUDONING O‘G‘LI iborasiga va MASIH so‘ziga qarang. [3] Matto 6:8-13, 7:7-11, 23:9, Луқо 11:1-13

XUDONING RUHI

“Ruh” deb tarjima qilingan ibroniycha va yunoncha so‘zlar yana “nafas”, “shamol” ma’nolarini ifodalaydi. Xudoning Ruhi dunyo yaratilishida bevosita ishtirok etgan[1]. Eski Ahdda bayon qilinishicha, Xudoning Ruhi insonlarni qamrab olgan, ularga turli vazifalarni bajarish uchun kuch bergan[2]. Xudoning Ruhi ba’zi odamlarni Xudoning so‘zlarini gapirishga undagan[3]. Xudo O‘z Ruhini bir kun kelib butun odamzod ustiga yog‘dirishini Yo‘el payg‘ambar orqali va’da qilgan[4].

Yangi Ahdda Xudoning Ruhi Muqaddas Ruh deb ataladi. Muqaddas Ruh orqali odamlar Xudoning so‘zlarini aytadilar, ba’zan mo‘jizalar ko‘rsatadilar. Yahyo payg‘ambar bashorat qilib, Iso Masih insonlarni Muqaddas Ruhga cho‘mdiradi, deb aytgan[5]. Yahyo payg‘ambar Isoni suvga cho‘mdirganda, Muqaddas Ruh Isoning ustiga kaptar shaklida tushgan[6] va U Muqaddas Ruhga to‘lgan[7]. Iso Masih Muqaddas Ruh boshchiligida yashagan.

Iso o‘z shogirdlariga, Otam sizlarga yo‘l–yo‘riq ko‘rsatish va kuch–qudrat ato qilish uchun Muqaddas Ruhni yuboradi, deb va’da bergan[8]. Iso osmonga ko‘tarilgandan keyin mana shu va’da amalga oshdi[9]. Shunday qilib, Yo‘el payg‘ambarning bir necha asrlar oldin aytgan bashorati bajo bo‘ldi[10]. Isoning shogirdlari odamlarni tavba qilishga, suvga cho‘mishga va Muqaddas Ruhni qabul qilishga da’vat etganlar[11]. Iso Masihga ishongan har bir insonning yuragida Muqaddas Ruh yashaydi. Muqaddas Ruh ularning Xudoga tegishli ekanligini va najot kafili O‘zi ekanligini tasdiqlaydi[12]. Muqaddas Ruh imonlilarga har xil in’omlar beradi, ular bu in’omlari bilan Xudoga va boshqalarga xizmat qiladilar[13]. Imonlilar Muqaddas Ruh boshchiligida hayot kechiradilar va Muqaddas Ruh tufayli ulardagi xislatu fazilatlar Xudoga manzur bo‘ladi[14].

[1] Ibtido 1:2 [2] Chiqish 31:3, Hakamlar 14:6, 1 Shohlar 11:6-7, 16:13 [3] 1 Solnomalar 12:18, 2 Solnomalar 15:1-7, 20:14-15, Hizqiyol 11:5, Mixo 3:8 [4] Yo‘el 2:28-29 [5] Matto 3:11 [6] Luqo 3:22 [7] Luqo 4:1, 10:21, Yuhanno 3:34 [8] Luqo 24:49, Yuhanno 14:16-17, 26, 16:7-15, 20:22, Havoriylar 1:4-5, 8 [9] Havoriylar 2:1-4 [10] Havoriylar 2:14-21 [11] Havoriylar 2:38, 19:1-6 [12] Rimliklar 8:15-16, 2 Korinfliklar 1:21-22, Efesliklar 1:13-14 [13] 1 Korinfliklar 12:4-11 [14] Galatiyaliklar 5:22-25

XUDONING UYI

Bu ibora Muqaddas chodirga, keyinchalik esa Ma’badga ishora qilgan. MUQADDAS CHODIR iborasiga va MA’BAD so‘ziga qarang.

XUDONING O‘G‘LI, XUDOYI TAOLONING O‘G‘LI

Bu ibora unvon bo‘lib, yahudiylar intizorlik bilan kutgan xaloskorga nisbatan ishlatilgan. Yahudiylarning tasavvuri bo‘yicha, bu xaloskor ularni dushmanlari qo‘lidan qutqaradi va butun odamzod ustidan abadiy hukmronlik qiladi. Bu xaloskorga nisbatan odatda “Masih” unvoni ham ishlatilgan[1]. “Xudoning O‘g‘li” yoki “O‘g‘il” unvonlari Isoga nisbatan ishlatilganda, Iso intizorlik bilan kutilgan Masih ekanligini bildiradi. Bu unvonlar Isoning Xudo bilan yaqin munosabatini, Iso Xudoning nomidan ish qilishini ko‘rsatadi. Iso Masih O‘zining samoviy Otasiga butunlay itoat etib, sadoqat bilan xizmat qilgan. Shu tariqa Iso samoviy Otasiga izzat–hurmat ko‘rsatgan, Uning fazilatlarini O‘zida to‘liq mujassam etib, namoyon qilgan. Yuhanno 14:6-13, Kolosaliklar 1:15, 19, Ibroniylar 1:2-3 ga qarang.

Afsuski, ba’zilar “Xudoning O‘g‘li” degan unvonni noto‘g‘ri tushunib, Iso jismonan Xudodan tug‘ilgan ekan, deb o‘ylaydilar. Ammo bu aql bovar qilmaydigan mutlaqo noto‘g‘ri fikr! Bunday fikr Muqaddas Kitobda bayon qilingan ta’limotlarga butunlay ziddir. Yangi Ahdda bayon qilinishicha, Maryam mo‘jizaviy ravishda, Muqaddas Ruhning qudrati bilan Isoga homilador bo‘lgan[2].

Eski Ahdda Xudo Isroil xalqini “to‘ng‘ich o‘g‘lim” deb atab, ular bilan qanchalik yaqin munosabat o‘rnatganini ko‘rsatgan[3]. Shuningdek,

Xudo Isroil shohini ham “Mening o‘g‘lim” deb atagan, chunki Isroil shohi Xudoning vakili sifatida xalq ustidan hukmronlik qilgan[4].

[1] To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun MASIH so‘ziga qarang. [2] Matto 1:18-25, Luqo 1:26-38 [3] Chiqish 4:22-23 [4] Zabur 2:7 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang.

XUDONING SHOHLIGI

Xudoning insonlar hayotidagi hukmronligiga va har bir yaratilgan mavjudotning oxiratda yangilanishiga ishora. Iso Masih: “Xudoning Shohligi yaqinlashdi”, deb va’z qilardi, U O‘z mo‘jizalari orqali bu Shohlik haqiqatan ham mavjud ekanligini ko‘rsatardi. Iso Masih odamlarga: “Xudoning Shohligi sizlarning orangizda”, deb ta’lim bergan[1]. Insonlarning gunohlari Iso Masih orqali kechirilganda, ular Xudoning Shohligiga kiradilar[2]. Xudoning Shohligiga mansub bo‘lgan odamlar Xudoni o‘zlarining Shohi deb tan oladilar va o‘zaro munosabatlarida Xudoning fazilatlarini namoyon qiladilar. Shu orqali Xudoning Shohligi insonlar orasida ekanligi ko‘rinib turadi. Kelajakda esa Iso Masih butun dunyoni yovuzlik va qabihlikdan poklagandan keyin Xudoning Shohligi to‘liq o‘rnatiladi[3]. Matto kitobida Xudoning Shohligi “Osmon Shohligi” deb ham atalgan.

[1] Luqo 17:20-21 [2] Kolosaliklar 1:13-14 [3] Matto 25:31-46, 1 Korinfliklar 15:24-25, Vahiy 11:15, 12:10

XUDOYI TAOLO

XUDONING NOMLARI iborasiga qarang.

XUSHXABAR

Eski Ahd payg‘ambarlari Masih haqida ko‘p bashorat qilganlar. Intizorlik bilan kutilgan Masihning kelgani haqidagi xabar Yangi Ahdda Xushxabar deb ataladi[1]. Mazkur Xushxabarning mohiyati quyidagilardan iborat: kelishi bashorat qilingan Masih Isodir. Iso odamzodni gunoh va o‘lim qudratidan xalos qilish uchun kelgan, Iso Masihga ishongan har bir inson, millatidan qat’i nazar, Xudoning Shohligiga kira oladi[2].


Iso Masih yer yuzidagi faoliyati davomida O‘z shogirdlari bilan birga: “Xudoning Shohligi yaqinlashdi!” deb e’lon qilib, odamlarni tavba qilishga va Xushxabarga ishonishga da’vat etgan[3]. Iso O‘z ta’limoti va qilgan ishlari orqali[4], shuningdek, xochda jon berib, insoniyatni gunohlardan xalos qilgani va uchinchi kuni o‘likdan tirilgani orqali O‘zining Masih ekanligini isbotladi[5]. Iso o‘likdan tirilgandan keyin, odamlar Xushxabarni yanada to‘liqroq tushuna boshladilar. Iso osmonga ko‘tarilib ketishidan oldin shogirdlariga Xushxabarni butun dunyo bo‘ylab tarqatish vazifasini topshirdi[6]. Shogirdlar Isoning Masih, ya’ni Xudo tomonidan yuborilgan Najotkor ekani haqidagi Xushxabarni yoya boshladilar[7].

Xushxabar so‘zi yana Yangi Ahd tarkibidagi dastlabki to‘rtta kitobga nisbatan ham ishlatilgan. Bu Xushxabarlarda Iso Masihning hayoti, faoliyati va ta’limoti bayon qilingan.

[1] Luqo 2:10-11 [2] To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun MASIH so‘ziga qarang. [3] Matto 10:7, Mark 1:14-15 [4] Luqo 4:16-21, 7:20-23 [5] Luqo 24:44-48, 1 Korinfliklar 15:1-4 [6] Matto 28:18-20, Havoriylar 1:8 [7] Havoriylar 4:12, 5:42

XO‘PTIR

Don yanchishda ishlatilgan, ostiga uchli tosh yoki temir mahkamlangan og‘ir taxta.



YAHUDIY

“Yahudiy” so‘zi Yoqub o‘g‘li Yahudoning ismidan kelib chiqqan[1]. Miloddan oldingi 586 yilda Bobilliklar Yahudo yurtini, ya’ni janubiy shohlikni bosib olib, aholisining aksariyatini Bobilga asir qilib olib ketganlar[2]. Bobildagi yetmish yillik asirlik davrida va undan keyin “yahudiy” so‘zi Yahudo xalqiga va jamiki Isroil qabilalarining avlodlariga nisbatan ishlatilib, millat ma’nosini bildiruvchi so‘zga aylangan.

[1] YAHUDO so‘ziga qarang. [2] BOBIL so‘ziga qarang.

YAHUDIYA

Bu nom faqat Yangi Ahd kitoblarida ishlatilgan bo‘lib, odatda O‘lik dengizning g‘arb tomonidagi qirli yerlarni bildirardi. Eski Ahd davrida bu yerlar Yahudo qabilasining hududi bo‘lgan. Quddus shahri va Iso Masih tug‘ilgan Baytlahm shahri mana shu qirli yerlarda joylashgan edi. Shuningdek, Yangi Ahd davrida “Yahudiya” Rim imperiyasi tarkibiga kirgan viloyat bo‘lgan. Bu viloyatning hududi nafaqat

O‘lik dengizning g‘arb tomonidagi yerlarni, balki shimoldagi Samariya hududini va g‘arbdagi O‘rta yer dengizi bo‘yidagi yerlarni o‘z ichiga olardi. Ba’zan esa, jumladan, Luqo Xushxabarida Yahudiya nomi butun qadimgi Falastinga[1] nisbatan ishlatilgan.

[1] FALASTIN so‘ziga qarang.

YAHUDO

Yoqubning o‘n ikkita o‘g‘lidan biri bo‘lib, Yahudo qabilasining bobokaloni edi. Yahudo qabilasi Isroil yurtining janubiy qismidagi eng katta qabila bo‘lgan. Shoh Sulaymon vafotidan keyin shimoldagi o‘nta qabila janubdagi Yahudo va Benyamin qabilalaridan ajralib chiqdi[1]. Yahudo va Benyamin qabilalari alohida davlatni tashkil qilib, Yahudo shohligi[2] deb nom oldi. Bu davlatning poytaxti Quddus bo‘ldi. Eski Ahdning ba’zi o‘rinlarida janubdagi bu ikkala qabilaga Yahudo xalqi degan nom, bu qabilalar tashkil qilgan davlatga nisbatan Yahudo yurti degan nom qo‘llangan.

Miloddan oldingi 586 yilda Bobilliklar Yahudo yurtini bosib olib, aholisining aksariyatini Bobilga asir qilib olib ketganlar[3]. Yetmish yildan keyin, Fors imperiyasi hukmronligi davrida surgundagi yahudiylarning ba’zilari Yahudoga qayta boshladi. Ular Quddusdagi Ma’badni va shahar devorlarini qayta qurdilar[4]. Quddus shahri atrofida yashayotgan yahudiylarning hududi sobiq Yahudo shohligidan kichik edi. Bu hudud Iskandar Zulqarnayn tomonidan bosib olingandan keyin “Yahudiya” degan nom bilan ma’lum bo‘lgan.

[1] 3 Shohlar 11:26-12:24 [2] janubiy shohlik iborasi bilan ham ma’lum [3] 4 Shohlar 25:1-21 [4] Ezra 1:1-11, Naximiyo 1:1-2:8

YANGI AHD

Muqaddas Kitobning ikkinchi qismi bo‘lib, yigirma yettita kitobdan iborat. O‘zbek tilida Yangi Ahd yana Injil nomi bilan ham ma’lum. Yangi Ahd kitoblari milodiy birinchi asrda, Iso Masih osmonga ko‘tarilgandan keyin yozilgan. Bu kitoblar qadimiy yunon tilida yozilgan bo‘lib, ularning asosiy mavzusi Iso Masihning hayoti, faoliyati, ta’limoti va masihiylarga berilgan yo‘l–yo‘riqlaridan iborat.

Qadimda Xudo Muso orqali Isroil xalqi bilan ahd tuzgan edi, keyinchalik esa U Iso Masih orqali O‘z xalqi bilan ulug‘roq va a’loroq va’dalarga asoslangan yangi ahd tuzdi[1]. Shuning uchun bu kitoblar majmuasi “Yangi Ahd” deb ataladigan bo‘ldi.

[1] 1 Korinfliklar 11:25, Ibroniylar 8:6-13 ga qarang.

YANGI OY SHODIYONASI

BAYRAMLAR so‘ziga qarang.

YHVH

XUDONING NOMLARI iborasi ostida berilgan EGAM, EGAMIZ… so‘zlariga qarang.

YOBUS XALQI

Isroil xalqi Kan’on yurtini egallamasdan oldin o‘sha yerda yashagan xalqlardan biri. Dovud Quddusni bosib olishidan oldin Yobus xalqi Quddusda va uning atrofida yashagan[1]. Yana KAN’ON XALQI, KAN’ON XALQLARI, KAN’ONDAGI XALQLAR iboralariga qarang.

[1] 2 Shohlar 5:6-10

YODGORLIK TOSHI

Tik qilib o‘rnatilgan uzunchoq tosh. Bu toshlar birortasining qabrini belgilab qo‘yish, muhim bir voqeani yoki inson xotirasini abadiylashtirish uchun o‘rnatilardi[1].

[1] Ibtido 28:16-18, 35:20, Chiqish 24:4, 2 Shohlar 18:18

YOQUB

Yoqub Ibrohimning nabirasi va Is’hoqning o‘g‘li edi. Yoqub Paniyolda Xudo bilan kurash tushgandan keyin, Xudo unga “Isroil” deb ism bergan[1]. Shu bois Eski Ahdda Yoqubning avlodlari “Isroil xalqi” deb atalgan. Ko‘pincha Eski Ahddagi payg‘ambarlar bitiklarida va she’riy parchalarda Isroil xalqi Yoqub yoki Yoqub nasli degan nom bilan yuritiladi. Eski Ahdning ayrim o‘rinlarida Yoqub so‘zi tor ma’noda ishlatilgan bo‘lib, poytaxti Samariya bo‘lgan Isroilni, ya’ni shimoliy shohlikni[2] yoki poytaxti Quddus bo‘lgan Yahudoni, ya’ni janubiy shohlikni bildiradi[3].

Yangi Ahdda Isoning o‘n ikki havoriysi orasida Yoqub ismli ikkita shogirdi bor edi. Isoning Yoqub degan ukasi ham bo‘lib, u Quddusdagi jamoatning obro‘li yo‘lboshchisi va Yangi Ahd tarkibidagi “Yoqubning maktubi” muallifi edi.

[1] Ibtido 32:28-29, 35:10 [2] ISROIL so‘ziga qarang. [3] YAHUDO so‘ziga qarang.

YOVUZ RUH

Muqaddas Kitobda yovuz ruh ba’zan jin deb atalgan. Yovuz ruhlarning hukmdori shaytondir. Yovuz ruhlar insonlarga zarar yetkazishni istaydi.

Ular ba’zan insonning ichiga kirib olib, uning xatti–harakatlarini boshqaradi. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun SHAYTON va FARISHTA so‘zlariga qarang.

YUNON QO‘LYOZMALARI

YUNONCHA MATN iborasiga qarang.

YUNON TILI VA MADANIYATI

Eski Ahd davridan keyin yunon tili va madaniyati qadimgi dunyoga katta ta’sir ko‘rsatgan. Miloddan oldingi 334 yilda Makedoniya shohi Iskandar Zulqarnayn g‘arbiy Osiyoga yunon lashkarini tortib bordi. Iskandar 11 yillik hukmronligi davrida, vafotiga qadar, butun Fors shohligini mag‘lub etib, o‘z hokimiyatini o‘rnatdi. Sobiq Fors shohligiga hozirgi Turkiya, Misr va O‘rta Osiyoning aksariyat qismi kirgan edi. Quddus shahri hech bir qarshiliksiz Iskandarga taslim bo‘lgan. Iskandar bosib olgan joylarda mahalliy xalqlarning dinini o‘zgartirishga harakat qilmagan, hatto ba’zi hollarda ularning odatlarini o‘zlashtirib olgan. Iskandar hukmronligi davrida ham, undan keyingi yunon hukmdorlari davrida ham qo‘lga kiritilgan yerlarda yangi shaharlar barpo qilingan, bu yerlarga yunonlar joylashib olganlar. Bu, o‘z navbatida, yunon tili, madaniyati va urf–odatlarining yoyilishiga sabab bo‘lgan.

Shunday qilib, yunon tili xalqaro tilga aylandi va ba’zi bir xalqlarning ona tili o‘rnini egalladi. Eski Ahd ibroniychadan ilk bor yunon tiliga miloddan oldingi 300-200 yillarda tarjima qilindi. Bu tarjima keyinchalik *Septuaginta* deb nom oldi. Shu tarjima tufayli g‘ayriyahudiylar va ona tilini bilmagan yahudiylar Muqaddas Bitiklarni o‘qish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Ilk jamoat masihiylari Septuagintadan keng foydalanganlar. Yangi Ahdda bu tarjimadan ko‘p iqtiboslar keltirilgan.

Miloddan oldingi 175-164 yillarda Suriyada Yunon shohi Antiox IV hukmronlik qilgan davrda Yahudiyada din erkinligi barham topdi[1]. Yahudiya aholisi Antioxga qarshi isyon ko‘tarib, mustaqillikka erishdi. Ular yana Ma’badda Xudoga sajda qiladigan bo‘ldilar[2]. Miloddan oldingi birinchi asrda Yahudiya o‘lkasi Rim imperiyasi tomonidan bosib olingandan keyin ham davlat, tijorat ishlarida, ta’lim sohasida yunon tili ishlatilaverdi. Buni Yangi Ahdda yozib qoldirilgan ba’zi voqealarda ko‘rsa bo‘ladi[3]. Ko‘p yahudiylarning ham yunoncha, ham oramiycha ismlari bo‘lgan[4]. Yangi Ahd tarkibiga kirgan barcha kitoblar keng ommaga tushunarli bo‘lishi uchun yunon tilida yozilgan.

[1] Doniyor 8:12 izohiga va 9:27 ning uchinchi izohiga qarang. [2] Yuhanno 10:22 izohiga qarang. [3] Yuhanno 19:20, Havoriylar 21:37-39 [4] Yuhanno 1:42, 11:16, Havoriylar 9:36

YUNONCHA MATN

Birlashgan Muqaddas Kitob Jamiyatlari tomonidan nashr qilingan yunoncha Yangi Ahdning 4–nashri (“UBS4” deb ataladi). Olimlar Yangi Ahdning bu matnini hozirgacha saqlanib kelgan hamma yunon qo‘lyozmalarini[1] sinchiklab o‘rganib chiqqanlaridan keyin nashrga tayyorlaganlar. Bu qo‘lyozmalarning ba’zilarida Yangi Ahd to‘liq holda, ba’zilarida esa parchalar holida saqlanib qolgan. Olimlarning aksariyati bu matnni Yangi Ahdning eng aniq, puxta va bugungi kunning talablariga javob beradigan nusxasi, deb hisoblaydilar. Yangi Ahdning o‘zbekcha tarjimasi, ko‘p zamonaviy tarjimalar singari, mana shu yunoncha matnga asoslangan.

[1] Quyidagi YUNON QO‘LYOZMALARI iborasiga qarang.

YUNON QO‘LYOZMALARI

Hozirgi davrda Yangi Ahdning to‘liq matnidan yoki ba’zi bir parchalaridan iborat yunoncha qo‘lyozmalarning soni 5800 dan ortiqroqdir. Bu qo‘lyozmalardagi ba’zi bir oyatlar UBS4[1] deb atalgan yunoncha matndan bir oz farq qiladi. Bu farqlar Yangi Ahdda berilgan ta’limotlarni to‘g‘ri tushunishimizga qiyinchilik tug‘dirmaydi. O‘zbekcha tarjimaga berilgan izohlarda mana shu farqlarning ba’zilari ko‘rsatib o‘tilgan. Shu orqali kitobxon ma’lum bir oyat nima uchun ayrim farqlar bilan tarjima qilinganini tushunib oladi.

Yangi Ahdning saqlanib qolgan qo‘lyozmalari boshqa qadimiy kitoblarga qaraganda ancha ko‘p. Bu qo‘lyozmalar asl matndan qisqa davr ichida ko‘chirilgan. Boshqa qadimiy kitoblar haqida shunday deb aytish qiyin. Masalan, Yuhanno Xushxabarining bir parchasi milodiy 125 yillarda ko‘chirilgan deb taxmin qilinadi[2]. Yuhanno Xushxabarining asl matni esa faqatgina undan taxminan 40 yillar oldin, ya’ni milodiy 85 yillarda yozilgan. Yangi Ahdning bir nechta parchalari ikkinchi asrlarda, ko‘plab nusxalari esa uchinchi va to‘rtinchi asrlarda ko‘chirilgan. Yangi Ahdning eng qadimgi to‘liq nusxasi to‘rtinchi asrda ko‘chirilgan bo‘lib, *Kodeks Sinaytikus* deb ataladi. Bu qo‘lyozma Londondagi Britaniya Kutubxonasining ko‘rgazmalar zalida saqlanadi[3].

Olimlar ko‘p qo‘lyozmalarni taqqoslash orqali matn ko‘chirilganda yo‘l qo‘yilgan xatolarni aniqlaydilar. Shu yo‘sinda Yangi Ahd mualliflari yozgan asl matn qaysi biri ekanligini mutlaq ishonch bilan ayta oladilar. Yangi Ahd matnining ishonchliligini tasdiqlaydigan dalillar qolgan barcha qadimiy kitoblarnikidan ancha ko‘p.

[1] YUNONCHA MATN iborasiga qarang. [2] Bu parchaning fotonusxasi kitob oxirida “Muqaddas Kitob qo‘lyozmalarining fotonusxalari” degan qismda keltirilgan. [3] Kodeks Sinaytikus*ning fotonusxasi kitob oxirida “Muqaddas Kitob qo‘lyozmalarining fotonusxalari” degan qismda keltirilgan. Bu qo‘lyozmani internet orqali ko‘rsa ham bo‘ladi.*

ZAYTUN

Doim yashil subtropik daraxt va shu daraxtning mevasi[1]. Zaytun daraxtining olxo‘ri shaklidagi yashil yoki qora mevasi nordon bo‘ladi. Bu daraxt Yaqin Sharqda juda keng tarqalgan bo‘lib, mevasidan moy olinadi.

[1] ruscha maslina yoki olivka

ZIL, ZILLAR

Bir–biriga urib chalinadigan metall tarelka shaklidagi musiqa asbobi.

ZIYORAT QO‘SHIG‘I

Ibroniycha matndan so‘zma–so‘z tarjimasi *yuqoriga chiqish qo‘shig‘i*, ya’ni Quddusga va Ma’bad turgan tepalikka chiqilayotganda aytilgan qo‘shiq. 119-133–sanolarning hammasi “ziyorat qo‘shiqlari” deb atalgan, 83–sano ham shu usulda yozilgan. Ziyoratchilar diniy bayramlarni nishonlash uchun Quddusga borayotganlarida ham, bayramlarni Ma’badda nishonlaganlarida ham shu qo‘shiqlarni kuylagan bo‘lishlari mumkin.

ZIG‘IR

Qadimgi paytlarda keng tarqalgan o‘simlik. Odamlar bu o‘simlikning poyalarini o‘rib olib, suvda ivitardilar. Quritganlaridan keyin esa tolalarini ajratib, ulardan ip yigirishardi. Zig‘ir ipidan mato to‘qishgan. Qadimgi zamonda mayin to‘qilgan zig‘ir matosi[1] qimmatbaho gazlama hisoblangan. Bu matodan tikilgan kiyim yengil va havo o‘tkazuvchan bo‘lgani uchun, iqlimi issiq o‘lkalarda yuksak darajada qadrlangan va unga ehtiyoj katta edi.

[1] ruscha lyon

O‘RAMA QOG‘OZ

Papirus yoki oshlangan teridan qilingan uzun o‘ralgan qog‘oz. Qadimgi paytlarda kitoblar odatda o‘rama qog‘oz shaklida bo‘lgan.



SHABBAT KUNI

Yahudiycha haftaning yettinchi kuni bo‘lib, bizning hafta bo‘yicha shanba kunidir. Bu kun muqaddas hisoblanib, dam olish kuni bo‘lgan. Xudoning Muso orqali bergan qonuniga ko‘ra, Shabbat kuni ish qilish man etilgan edi[1]. Isroil xalqi Shabbat kunini Xudoga shukronalar aytishga bag‘ishlagan. Bu kunda ruhoniylar maxsus qurbonlik keltirganlar[2]. Yangi Ahd davriga kelib, din rahnamolari Shabbat kuniga oid murakkab qoidalar tizimini yaratganlar. Iso O‘z ta’limoti va qilgan ishlari bilan bu tizimga qarshi chiqib, odamlarga dam olish kunining asl mohiyatini tushuntirgan, inson Shabbat kuni uchun emas, balki Shabbat kuni inson uchun yaratilganini ta’kidlagan[3].

[1] Chiqish 20:8-11, 31:12-17, Levilar 23:3, Qonunlar 5:12-15 [2] Sahroda 28:9-10 [3] Matto 12:1-14

SHAROB NAZRI

NAZR so‘ziga qarang.

SHAYTON

Samoviy mavjudot, gunohkor farishtalarning[1] boshlig‘i. Bu farishtalar yovuz ruhlar, jinlar deb ham atalgan. Shayton Xudoga va Xudoning xalqiga qarshi chiqadi. U har doim yovuzlik payida bo‘lib, insonlarni aldaydi va ularni Xudoning yo‘lidan ozdiradi[2]. Iso Masih kuchli irodasi va mo‘jizalari orqali shaytondan ustun ekanligini ko‘rsatdi[3]. Yangi Ahdda, bir kun kelib shayton butunlay mag‘lub bo‘ladi, deb yozilgan[4].

“Shayton” degan nom ibroniy tilidagi “dushman, ayblovchi” ma’nosini bildiradigan so‘zdan kelib chiqqan[5]. Yangi Ahdda shayton yana iblis ham deyiladi. Iblis so‘zi yunon tilidagi “tuhmatchi” ma’nosini beradigan so‘zdan kelib chiqqan. Yangi Ahdda bayon qilinishicha, shayton

odamlarni vasvasaga soladi[6]. U “bu dunyoning yovuz hukmdori”, “bu dunyoning xudosi” deb ham atalgan[7].

[1] FARISHTA so‘ziga qarang. [2] Luqo 8:12, Yuhanno 8:44, Vahiy 12:9 [3] Matto 4:1-11, Havoriylar 10:38, 1 Yuhanno 3:8 [4] Matto 25:41, Vahiy 20:10 [5] Zakariyo 3:1, Vahiy 12:10 [6] Matto 4:3, 1 Salonikaliklar 3:5 [7] Yuhanno 12:31, 2 Korinfliklar 4:4

SHOPIRISH

SOVURISH so‘ziga qarang.

SHOQUL

Binokorlikda devor, ustun va shu kabilarning vertikal holatini aniqlash uchun ishlatiladigan, bir uchiga og‘irlik bog‘langan ipdan iborat asbob.



SHUKRONA QURBONLIGI, SHUKRONA NAZRI

QURBONLIK so‘ziga qarang.

CHAYLA BAYRAMI

BAYRAMLAR so‘ziga qarang.

CHIROQPOYA


Muqaddas chodirning Muqaddas xonasida turadigan chiroqpoya[1]. Bu chiroqpoya Xudo ko‘rsatgan namuna bo‘yicha sof oltindan zarb urib yasalgan edi. Chiroqpoya yettita moychiroqni[2] ushlab turar edi[3]. Keyinchalik Quddusdagi Ma’badning Muqaddas xonasida o‘nta chiroqpoya bo‘lgan[4]. Ma’baddagi bu chiroqpoyalarning shakli Muso Muqaddas chodir uchun yasattirgan oltin chiroqpoyaga o‘xshash bo‘lganmi yoki yo‘qmi, ma’lum emas. Ehtimol, bu chiroqpoyalar Zakariyo 4:2 da tasvirlangan chiroqpoyaga o‘xshash bo‘lgandir[5].

[1] Chiqish 26:35 [2] MOYCHIROQ so‘ziga qarang. [3] Chiqish 25:31-40 [4] 3 Shohlar 7:49 [5] Lug‘atdan keyin ilova qilingan “Rasmlar va loyihalar” bo‘limida berilgan “Shoh Sulaymon qurdirgan Ma’bad” rasmiga qarang.




© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

Muqaddas chodir




**lug'atdagi rasmga qarang*


Shoh Sulaymon qurdirgan Ma'bad
Shimol
G'arb
Sharq
Janub
Ma'bad (60 x 20 x 30 tirsak)
Ahd sandig'i*
Muqaddas xona (40 x 20 x 30 tirsak)
bronza qurbongoh*
bronzadan yasalgan hovuz*
Eng muqaddas xona (20 x 20 x 20 tirsak)
karublar
chiroqpoyalar
bronzadan yasalgan aravalar*
tutatqi qurbongohi*
oltin xontaxta*
*lug'atdagi rasmga qarang


Hizqiyol vahiyda ko‘rgan Ma’badning loyihasi

Bu loyiha Hizqiyolning vahiysiga asoslangan (Hizqiyol 40-42–boblarga qarang). Ushbu loyiha shoh Sulaymon qurdirgan Ma’bad loyihasidan va shoh Hirod qurdirgan Ma’bad loyihasidan farq qiladi.



MA’BADNING UMUMIY LOYIHASI


1. Tashqi devor (40:5, 42:15-20)
2. Sharqiy darvoza binosi (40:5-16)
3. Shimoliy darvoza binosi (40:20-23)
4. Janubiy darvoza binosi (40:24-27)
5. Tashqi hovli (40:17)
6. Tosh yotqizilgan yo‘l va hujralar (40:17-18)
7. Ichki hovli (40:28)
8. Ichki hovli: janubiy darvoza binosi (40:28-31)
9. Ichki hovli: sharqiy darvoza binosi (40:32-24)
10. Ichki hovli: shimoliy darvoza binosi (40:35-37)
11. Qurbonlik uchun bo‘g‘izlangan hayvonlar yuviladigan xona (40:38)
12. Ruhoniylarning xonasi (40:44-46)
13. Ma’bad binosi
14. G‘arb tomondagi imorat (41:12)
15. Shimol tomondagi xonalar (42:1-10)
16. Janub tomondagi xonalar (42:10-11)
17. Oshxonalar (46:21-22)
18. Qurbongoh (40:47, 43:13-17)




MA’BAD MAYDONI (Hizqiyol 40:48-41:15)

1. Zinapoya (40:49)
2. Ustunlar (40:49)
3. Ayvonning yon devorlari (40:48)
4. Ayvon (40:49)
5. Yon devorlar (41:1)
6. Asosiy xona (41:2)
7. Yon devorlar (41:3)
8. Eng muqaddas xona (41:4)
9. Tashqi devor (41:5)
10. Yon xonalar (41:5)
11. Yon xonalarning tashqi devorlari (41:9)
12. Ichki hovli (41:9-10)
13. Devor (41:9)
14. G‘arb tomondagi imorat (41:12)
15. Ma’bad hovlisi (41:12)
16. Ma’bad hovlisining sharq tomonga qaragan qismi (41:14)

Shoh Hirod qurdirgan Ma'bad loyihasi
Iso Masih davrida



Shoh Hirod qurdirgan Ma'bad
Iso Masih davrida



ESKI AHD XRONOLOGIYASI JADVALI

	Insoniyat tarixining ilk davri
	Dunyoning yaratilishi (Ibtido 1-2–boblar)
	Odam Ato va Momo Havo (Ibtido 2–bob)
	Qobil va Hobil (Ibtido 4–bob)
	Nuh (Ibtido 6-9–boblar)
	Bobil minorasi (Ibtido 11–bob)

Taxminiy sana	**Ibrohim, Is'hoq va Yoqub payg'ambarlar davri**
mil. ol. 2150-1800	Ibrohim (Ibtido 12-25–boblar)
	Is'hoq (Ibtido 21-27–boblar)
	Yoqub (Ibtido 25, 27-35–boblar)
	Yusuf (Ibtido 37, 39-50–boblar)
	Yoqub va uning oilasi Misrga ko'chadi (Ibtido 46–bob)
	Ayub va uning tortgan azob–uqubatlari (Ayub 1-42–boblar)

Taxminiy sana	**Isroil xalqi Misrdan chiqib ketadi, Kan'on yurtini bosib oladi**
	Muso va Isroil xalqi Misrda (Chiqish 1-12–boblar)
mil. ol. 1440	Isroil xalqi Muso boshchiligida Misrdan chiqib ketadi (Chiqish 12-14–boblar)
	Muso va Isroil xalqi 40 yil sahroda yashaydi (Chiqish 15:1 dan Qonunlar 34:12 gacha)
	Isroil xalqi Yoshua boshchiligida Kan'on yurtini bosib oladi (Yoshua 1-24–boblar)
mil. ol. 1375-1050	Isroil xalqini boshqargan hakamlar davri (Hakamlar 1:1 dan 1 Shohlar 7:17 gacha)

Taxminiy sana	**Yagona Isroil yurtining shohlari**	**Payg'ambarlar**
mil. ol. 1050-950	Shoul (40 yil)	Shomuil
	Dovud (40 yil)	Natan
	Sulaymon (40 yil)	

[1] ya'ni miloddan oldingi 2150-1800 yillar

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

Taxminiy sana	Isroil shohlari	Yahudo shohlari	Payg‘ambarlar
mil. ol. 950-900	Yeribom (22 yil)	Raxabom (17 yil)	Oxiyo
	Nadov (2 yil)	Abiyo (3 yil)	
	Basho (24 yil)	Oso (41 yil)	
mil. ol. 900-850	Elox (2 yil)	Yohushafat (25 yil)	Ilyos
	Zimri (7 kun)		
	Omri (12 yil)		
	Axab (22 yil)		
	Oxoziyo (2 yil)		
mil. ol. 850-800	Yoram (12 yil)	Yohuram (8 yil)	Elishay
	Yohu (28 yil)	Oxoziyo (1 yil)	Yo‘el
	Yohuxoz (17 yil)	malika Otaliyo (7 yil)	
		Yo‘sh (40 yil)	
mil. ol. 800-750	Yoho‘sh (16 yil)	Emoziyo (29 yil)	Yunus
	Yorubom (41 yil)	Uzziyo (52 yil)	Amos
	Zakariyo (6 oy)	Yo‘tom (16 yil)	Xo‘sheya
	Shallum (1 oy)		
	Manaxim (10 yil)		
mil. ol. 750-700	Pakaxiyo (2 yil)	Oxoz (16 yil)	Mixo
	Pekax (20 yil)	Hizqiyo (29 yil)	Ishayo
	Xo‘sheya (9 yil)		
mil. ol. 722	**Samariya qulaydi, Isroil xalqi Ossuriyaga surgun qilinadi**		
mil. ol. 700-600		Manashe (55 yil)	Noxum
		Omon (2 yil)	Zafaniyo
		Yo‘shiyo (31 yil)	Xabaqquq
		Yohuxoz (3 oy)	Yeremiyo
		Yohayiqim (11 yil)	Doniyor
mil. ol. 600-550		Yohayixin (3 oy)	Obodiyo
		Zidqiyo (11 yil)	Hizqiyol
mil. ol. 586		**Quddus qulaydi, Yahudo xalqi Bobilga surgun qilinadi**	

Taxminiy sana	Yahudiylar Bobildagi surgundan qaytib kelishadi	Payg'ambarlar
mil. ol. 550-500	Zarubabel boshchiligida bir guruh yahudiylar Bobildan Quddusga qaytib kelib, Ma'badni qayta qurishadi (Ezra 1:1-4:5, 4:24-6:22)	Xaggey Zakariyo
mil. ol. 500-450	Ezra boshchiligida yana bir guruh yahudiylar Bobildan Quddusga qaytishadi (Ezra 7-10–boblar)	
mil. ol. 450-400	Naximiyo boshchiligida boshqa bir guruh yahudiylar Bobildan Quddusga qaytib, shahar devorini tiklashadi (Naximiyo 1-13–boblar)	Malaki

YANGI AHD XRONOLOGIYASI JADVALI

Taxminiy sana	Odamlar, voqealar va kitoblar
mil. ol. 37-4	Buyuk Hirod qadimgi Falastinda hukmronlik qilgan davr
mil. ol. 27-mil. 14[1]	Qaysar Avgust Rim imperiyasida hukmronlik qilgan davr
mil. ol. 4	Iso Masih tug‘iladi
mil. 26-29	Yahyo cho‘mdiruvchi faoliyat ko‘rsatgan davr
mil. 26-36	Po‘ntiy Pilat Yahudiya viloyatida hokimlik qilgan davr
mil. 27-30	Iso Masih yer yuzida xizmat qilgan davr
mil. 30	Iso Masih xochda jon beradi va uchinchi kuni o‘likdan tiriladi
mil. 30	Hosil bayrami kuni 3000 odam Isoga imon keltiradi
mil. 35	Pavlus Damashq yo‘lida Isoga imon keltiradi
mil. 46-48	Havoriy Pavlusning Xushxabar yoyish maqsadida qilgan birinchi safari
mil. 48	Isoning ukasi Yoqub o‘z maktubini yozadi[2]
mil. 49	Havoriy Pavlus “Galatiyaliklarga maktub”ini yozadi
mil. 50	Havoriy va oqsoqollarning Quddusdagi birinchi maslahat yig‘ini (Havoriy 15–bob)
mil. 50-52	Havoriy Pavlusning Xushxabar yoyish maqsadida qilgan ikkinchi safari
mil. 51	Havoriy Pavlus Korinf shahrida “Salonikaliklarga birinchi maktub”ini yozadi
mil. 52	Havoriy Pavlus Korinf shahrida “Salonikaliklarga ikkinchi maktub”ini yozadi
mil. 53-57	Havoriy Pavlusning Xushxabar yoyish maqsadida qilgan uchinchi safari
mil. 54-68	Qaysar Neron Rim imperiyasida hukmronlik qilgan davr
mil. 55	Havoriy Pavlus Efes shahrida “Korinfliklarga birinchi maktub”ini yozadi
mil. 55	Havoriy Pavlus Makedoniya viloyatida “Korinfliklarga ikkinchi maktub”ini yozadi
mil. 55	Mark Iso Masih haqidagi Xushxabarni yozadi
mil. 57	Havoriy Pavlus Korinf shahrida “Rimliklarga maktub”ini yozadi

[1] ya’ni miloddan oldingi 27 yildan to milodiy 14 yilgacha

[2] Yangi Ahd tarkibidagi kitoblarning joylashuv tartibi va ularning aniq qaysi paytda yozilgani haqida hamma olimlar ham bir fikrda emas. Bu jadvalda olimlarning aksariyat qismi qabul qilgan joylashuv tartibi va xronologiyasi berilgan.

Taxminiy sana	Odamlar, voqealar va kitoblar
mil. 59-62	Havoriy Pavlus Qaysarning hukmini talab qiladi, Rimda uy qamog‘ida o‘tiradi
mil. 60	Havoriy Pavlus Rimdagi uy qamog‘ida “Kolosaliklarga maktub”ini yozadi
mil. 60	Havoriy Pavlus Rimdagi uy qamog‘ida “Filimo‘nga maktub”ini yozadi
mil. 60	Havoriy Pavlus Rimdagi uy qamog‘ida “Efesliklarga maktub”ini yozadi
mil. 60	Havoriy Matto Iso Masih haqidagi Xushxabarni yozadi
mil. 60	Luqo Iso Masih haqidagi Xushxabarni yozadi
mil. 61	Havoriy Pavlus Rimdagi uy qamog‘ida “Filippiliklarga maktub”ini yozadi
mil. 63	Havoriy Butrus birinchi maktubini yozadi
mil. 63	Luqo “Havoriylarning faoliyati” kitobini yozadi
mil. 64	Havoriy Pavlus “Timo‘tiyga birinchi maktub”ini yozadi
mil. 64	Havoriy Pavlus “Titusga maktub”ini yozadi
mil. 64	Rim shahrida yuz bergan kuchli yong‘in shaharning aksariyat qismini yo‘q qiladi, Imperator Neron bunda masihiylarni ayblab, ularni shafqatsizlarcha quvg‘in qila boshlaydi
mil. 65	Isoning ukasi Yahudo o‘z maktubini yozadi
mil. 66-67	Imperator Neron hukmronligi davrida havoriy Pavlus Rimda hibsga olinadi
mil. 67	Havoriy Pavlus Rimdagi qamoqxonada “Timo‘tiyga ikkinchi maktub”ini yozadi
mil. 67	Havoriy Butrus ikkinchi maktubini yozadi
mil. 68	“Ibroniylarga maktub” yoziladi
mil. 69-79	Qaysar Vespasian Rim imperiyasida hukmronlik qilgan davr
mil. 70	Yahudiylar Rim istibdodiga qarshi isyon ko‘targanlari uchun, Rim lashkari Quddusni va Ma’badni vayron qiladi, ko‘p yahudiylarni qirib yuboradi
mil. 81-96	Qaysar Domitian Rim imperiyasida hukmronlik qilgan davr
mil. 85	Havoriy Yuhanno Iso Masih haqidagi Xushxabarni yozadi
mil. 90	Havoriy Yuhanno birinchi maktubini yozadi
mil. 90	Havoriy Yuhanno ikkinchi maktubini yozadi
mil. 90	Havoriy Yuhanno uchinchi maktubini yozadi
mil. 90-95	Havoriy Yuhanno Patmos oroliga surgun qilinadi
mil. 95	Havoriy Yuhanno Patmos orolida “Vahiy” kitobini yozadi

O‘XSHASH PARCHALAR JADVALLARIGA KIRISH

Ayrim hollarda Muqaddas Kitobdagi ba’zi oyatlarning mazmuni aynan bir kitobning o‘zida yoki boshqa kitobda takrorlanadi. Bunday takrorlar, asosan, 2-4 Shohlar kitoblarida, 1-2 Solnomalar kitoblarida va to‘rtta Xushxabarda uchraydi. Kitobxonlarimizga o‘xshash parchalarni topishga yordam berish maqsadida, Eski Ahd va Yangi Ahd kitoblari uchun quyidagi jadvallar ishlab chiqildi. Bu jadvallarda o‘xshash parchalarning asosiy mavzusi ifodalangan va o‘sha parchalarning Muqaddas Kitobdagi manzili keltirilgan. Jadvallarni tuzishdan yana bir maqsad kitobxonga 2-4 Shohlar, 1-2 Solnomalar kitoblari va to‘rtta Xushxabarlarni yaxshiroq qiyoslash imkonini berishdir. Shuning uchun ba’zi voqealar mana shu kitoblarning faqatgina bittasida yoritilgan bo‘lsa–da, o‘sha voqeaning manzili jadvalga kiritilgan.

ESKI AHDDAGI O‘XSHASH PARCHALAR JADVALI

Chiqish, Levilar, Sahroda, Qonunlar, Yoshua, Hakamlar

Parchaning asosiy mavzusi	O‘xshash parchalar manzillari
Fisih ziyofati va Xamirturushsiz non bayrami	Chiqish 12:14-20, Levilar 23:5-8, Sahroda 28:16-25, Qonunlar 16:1-8
O‘nta amr	Chiqish 20:1-17, Qonunlar 5:6-21
Qutlug‘ yil (yettinchi yil)	Levilar 25:8-38, Qonunlar 15:1-11
Muqaddas chodir uchun nazrlar	Chiqish 25:1-7, 35:4-19, 39:32-41
Ahd sandig‘i	Chiqish 25:10-20, 37:1-9
Oltin xontaxta	Chiqish 25:23-29, 37:10-16
Chiroqpoya	Chiqish 25:31-39, 37:17-24
Muqaddas chodir	Chiqish 26:1-37, 36:8-38
Bronza qurbongoh	Chiqish 27:1-8, 38:1-7
Chiroqpoya uchun moy	Chiqish 27:20-21, Levilar 24:1-3
Efod	Chiqish 28:6-14, 39:2-7
Ko‘krakpech	Chiqish 28:15-28, 39:8-21
Boshqa ruhoniylik liboslari	Chiqish 28:31-43, 39:22-31
Ruhoniylarning bag‘ishlanishi	Chiqish 29:1-37, Levilar 8:1-36
Tutatqi qurbongohi	Chiqish 30:1-5, 37:25-28
Bazalil va Oxoliyov	Chiqish 31:2-6, 35:30-35
Halol va harom hayvonlar	Levilar 11:1-23, Qonunlar 14:3-20
Hosil bayrami	Levilar 23:15-22, Sahroda 28:26-31, Qonunlar 16:9-12
Karnay bayrami	Levilar 23:23-25, Sahroda 29:1-6
Poklanish kuni	Levilar 16:1-34, 23:26-32, Sahroda 29:7-11
Chayla bayrami	Levilar 23:33-43, Sahroda 29:12-39, Qonunlar 16:13-17
Panoh shaharlar	Sahroda 35:6-34, Qonunlar 4:41-43, 19:1-14, Yoshua 20:1-9
O‘tniyol Davir shahrini qo‘lga kiritadi	Yoshua 15:15-19, Hakamlar 1:11-15
Yoshua vafot etadi	Yoshua 24:29-31, Hakamlar 2:7-9

1 Solnomalar va Eski Ahddagi boshqa kitoblar

Parchaning asosiy mavzusi	1 Solnomalar	O‘xshash parchalar manzillari
Odam Atoning nasli	1:1-4	Ibtido 5:1-32
Yofasning nasli	1:5-7	Ibtido 10:2-4
Xomning nasli	1:8-10	Ibtido 10:6-8
Somning nasli	1:17-27	Ibtido 10:22-29
Xaturo Ibrohimga tug‘ib bergan o‘g‘illar	1:32-33	Ibtido 25:1-4
Is’hoqning nasli	1:34	Ibtido 21:3, 25:25-26
Esovning nasli	1:35-37	Ibtido 36:4-5, 10-13
Seirning nasli	1:39-42	Ibtido 36:20-28
Edom shohlari va yo‘lboshchilari	1:43-54	Ibtido 36:31-43
Yoqubning o‘g‘illari	2:1-2	Chiqish 1:1-5
Yahudoning nasli	2:3	Ibtido 38:2-7, 46:12
Ramning nasli	2:10-17	Rut 4:19-22
Xazronning nasli	2:18-24	
Yaraxmalning nasli	2:25-41	
Xolibning nasli	2:42-55	
Dovudning farzandlari	3:1-4, 14:4-7	2 Shohlar 3:2-5, 5:14-15
Sulaymonning nasli	3:10-24	
Yahudoning nasli	4:1-23	
Shimo‘nning nasli	4:24-43	Sahroda 26:12-14, Yoshua 19:1-8
Rubenning nasli	5:1-10	Ibtido 46:9, Chiqish 6:14, Sahroda 26:5-7
Gadning nasli	5:11-22	
Manashe qabilasining yarmi	5:23-26	

Parchaning asosiy mavzusi	1 Solnomalar	O‘xshash parchalar manzillari
Levining nasli	6:1-30	
Ma’bad sozandalari	6:31-48	
Horunning nasli	6:49-53	
Levilar yashagan shaharlar	6:54-81	Yoshua 21:4-39
Issaxorning nasli	7:1-5	Ibtido 46:13, Sahroda 26:23-25
Benyaminning nasli	7:6-12, 8:1-32	Ibtido 46:21
Naftalining nasli	7:13	
Manashening nasli	7:14-19	
Efrayimning nasli	7:20-29	
Osherning nasli	7:30-40	
Shoulning nasli	8:33-40, 9:35-44	
Surgundan Quddusga qaytib kelgan xalq	9:1-34	
Shoulning o‘limi	10:1-14	1 Shohlar 31:1-13
Dovud Isroil shohi bo‘ladi	11:1-3	2 Shohlar 5:1-3
Dovud Quddusni bosib oladi	11:4-9	2 Shohlar 5:6-10
Dovudning bahodir jangchilari	11:10-47	2 Shohlar 23:8-39
Dovudning Zixlaxdagi izdoshlari	12:1-22	
Dovudning Xevrondagi izdoshlari	12:23-40	
Uzzox Ahd sandig‘iga qo‘l tekkizadi	13:1-14	2 Shohlar 6:1-11
Dovudning shuhrati	14:1-17, 3:5-8	2 Shohlar 5:11-25
Ahd sandig‘i Quddusga keltiriladi	15:1-29	2 Shohlar 6:12-16
Dovud Xudoga sajda qilib, shukrona qo‘shig‘ini aytadi	16:1-36	2 Shohlar 6:17-19, Zabur 95:1-13, 104:1-15
Dovud Quddus va Givonda sajda qilishni yo‘lga qo‘yadi	16:37-43	
Xudo Dovudga va’da beradi	17:1-15	2 Shohlar 7:1-17
Dovud Xudoga hamdu sano aytadi	17:16-27	2 Shohlar 7:18-29
Dovudning jangdagi g‘alabalari	18:1-13	2 Shohlar 8:1-14
Dovudning a’yonlari	18:14-17	2 Shohlar 8:15-18
Dovud Ommon va Oram xalqlarini mag‘lub qiladi	19:1-20:3	2 Shohlar 10:1-11:1, 12:29-31

Parchaning asosiy mavzusi	1 Solnomalar	O‘xshash parchalar manzillari
Filist pahlavonlariga qarshi jang	20:4-8	2 Shohlar 21:18-22
Dovudning zafar qo‘shig‘i		2 Shohlar 22:1-51, Zabur 17:1-51
Dovud xalqni ro‘yxatga oladi	21:1-22:1	2 Shohlar 24:1-25
Dovud Ma’badni qurishga tayyorgarlik ko‘radi	22:2-19	
Sulaymon shoh qilib tayinla-nadi	23:1	
Levilar va ularning vazifalari	23:2-32	
Ruhoniylar va ularning vazifa-lari	24:1-19	
Levi urug‘boshilarining ro‘y-xati	24:20-31	
Ma’bad sozandalari va ularning vazifalari	25:1-31	
Ma’bad darvozabonlari va ularning vazifalari	26:1-19	
Boshqa levilar va ularning vazifalari	26:20-32	
Lashkarboshilar	27:1-24	
A’yonlar	27:25-34	
Dovud Ma’badni qurish uchun ko‘rsatma beradi	28:1-21	
Ma’bad qurilishi uchun hadyalar	29:1-9	
Dovud Xudoni madh qiladi	29:10-20	
Sulaymon taxtga o‘tiradi	29:21-25	
Dovudning o‘limi	29:26-30	3 Shohlar 2:10-11

2 Solnomalar va Eski Ahddagi boshqa kitoblar

Parchaning asosiy mavzusi	2 Solnomalar	O‘xshash parchalar manzillari
Sulaymonning shohligi o‘rnatiladi	1:1-4	3 Shohlar 2:46
Sulaymon donolik so‘rab ibodat qiladi	1:5-13	3 Shohlar 3:4-15
Sulaymonning boyligi	1:14-17, 9:25-28	3 Shohlar 10:26-29
Sulaymonning donishmandligidan bir lavha		3 Shohlar 3:16-28
Sulaymonning a’yonlari		3 Shohlar 4:1-19
Sulaymon hukmronligining ravnaq topishi		3 Shohlar 4:20-34
Ma’bad qurilishi uchun tayyorgarlik	2:1-18	3 Shohlar 5:1-18
Ma’bad qurilishi	3:1-14	3 Shohlar 6:1-38
Sulaymonning saroyi		3 Shohlar 7:1-12
Ma’bad ichidagi narsalar	3:15-5:1	3 Shohlar 7:13-51
Ahd sandig‘i Ma’badga keltiriladi	5:2-6:11	3 Shohlar 8:1-21
Sulaymonning ibodati	6:12-42	3 Shohlar 8:22-53, Zabur 131:8-10
Ma’bad Egamizga bag‘ishlanadi	7:1-10	3 Shohlar 8:54-66
Xudo Sulaymonga zohir bo‘ladi	7:11-22	3 Shohlar 9:1-9
Sulaymonning erishgan yutuqlari	8:1-18	3 Shohlar 9:10-28
Shava malikasi Quddusga tashrif buyuradi	9:1-12	3 Shohlar 10:1-13
Sulaymonning boyligi	9:13-28, 1:14-17	3 Shohlar 10:14-29
Sulaymonning xotinlari		3 Shohlar 11:1-13
Sulaymonning dushmanlari		3 Shohlar 11:14-25
Yeribom Sulaymonga qarshi isyon ko‘taradi		3 Shohlar 11:26-40
Sulaymonning o‘limi	9:29-31	3 Shohlar 11:41-43
Shimoldagi qabilalar qo‘zg‘oloni	10:1-19	3 Shohlar 12:1-20
Shamayoning bashorati	11:1-4	3 Shohlar 12:21-24
Isroil shohi Yeribom		3 Shohlar 12:25-14:20
Yahudo shohi Raxabomning qal’alari	11:5-17	
Raxabomning xonadoni	11:18-23	
Misr Yahudo yurtiga hujum qiladi	12:1-14	3 Shohlar 14:21-28

Parchaning asosiy mavzusi	2 Solnomalar	O‘xshash parchalar manzillari
Raxabomning o‘limi	12:15-16	3 Shohlar 14:29-31
Yahudo shohi Abiyo	13:1-22	3 Shohlar 15:1-7
Yahudo shohi Oso	14:1-15	3 Shohlar 15:8-12
Osoning islohotlari	15:1-19	3 Shohlar 15:13-16
Oso hukmronligining oxirgi davri	16:1-10	3 Shohlar 15:17-22
Osoning o‘limi	16:11-14	3 Shohlar 15:23-24
Isroil shohi Nadov		3 Shohlar 15:25-32
Isroil shohi Basho		3 Shohlar 15:33-16:7
Isroil shohi Elox		3 Shohlar 16:8-14
Isroil shohi Zimri		3 Shohlar 16:15-20
Isroil shohi Omri		3 Shohlar 16:21-28
Isroil shohi Axab		3 Shohlar 16:29-34
Ilyos payg‘ambar		3 Shohlar 17:1-19:21
Axab va Oram shohi Banhadad orasidagi urush		3 Shohlar 20:1-43
Axab Navo‘tni o‘ldiradi		3 Shohlar 21:1-29
Yahudo shohi Yohushafat	17:1-19	
Mixiyo payg‘ambar shoh Axabni ogohlantiradi	18:1-27	3 Shohlar 22:1-28
Axabning o‘limi	18:28-34	3 Shohlar 22:29-40
Valiy Yohu Yohushafatga tanbeh beradi	19:1-3	
Yohushafatning islohotlari	19:4-11	
Yohushafat atrofidagi xalqlar bilan urush qiladi	20:1-30	
Yohushafat hukmronligining so‘nggi davri	20:31-21:3	3 Shohlar 22:41-50
Isroil shohi Oxoziyo		3 Shohlar 22:51-53
Ilyos payg‘ambar va Oxoziyo		4 Shohlar 1:1-18
Ilyos osmonga olinadi		4 Shohlar 2:1-25
Mo‘ab va Isroil o‘rtasidagi urush		4 Shohlar 3:1-27
Elishay payg‘ambar		4 Shohlar 4:1-8:15
Yahudo shohi Yohuram	21:4-20	4 Shohlar 8:16-24

Parchaning asosiy mavzusi	2 Solnomalar	O‘xshash parchalar manzillari
Yahudo shohi Oxoziyo	22:1-6	4 Shohlar 8:25-29
Yohu Isroil ustidan shoh qilib tayinlanadi		4 Shohlar 9:1-13
Yohu Isroil shohi Yoramni va Yahudo shohi Oxoziyoni o‘ldiradi	22:7-9	4 Shohlar 9:14-29
Yohu Izabelni o‘ldiradi		4 Shohlar 9:30-37
Yohu Axab xonadonini o‘ldiradi		4 Shohlar 10:1-17
Yohu Baalga sig‘inganlarni o‘ldiradi		4 Shohlar 10:18-28
Yohuning hukmronligi		4 Shohlar 10:29-36
Yahudo malikasi Otaliyo	22:10-12	4 Shohlar 11:1-3
Malika Otaliyo o‘ldiriladi	23:1-21	4 Shohlar 11:4-20
Yahudo shohi Yo‘sh	24:1-16	4 Shohlar 11:21-12:16
Yo‘sh hukmronligining oxirgi davri	24:17-27	4 Shohlar 12:17-21
Isroil shohi Yohuxoz		4 Shohlar 13:1-9
Isroil shohi Yoho‘sh		4 Shohlar 13:10-11
Yoho‘sh va Elishay payg‘ambar		4 Shohlar 13:14-25
Yoho‘shning o‘limi		4 Shohlar 13:12-13, 14:15-16
Yahudo shohi Emoziyo	25:1-24	4 Shohlar 14:1-14
Emoziyoning o‘limi	25:25-28	4 Shohlar 14:17-20
Uzziyo Yahudo shohi qilib tayinlanadi	26:1-2	4 Shohlar 14:21-22
Isroil shohi Yorubom		4 Shohlar 14:23-29
Uzziyoning hukmronligi	26:3-15	4 Shohlar 15:1-4
Xudo Uzziyoni teri kasalligiga yo‘liqtiradi	26:16-21	4 Shohlar 15:5
Uzziyoning o‘limi	26:22-23	4 Shohlar 15:6-7, Ishayo 1:1, 6:1
Isroil shohi Zakariyo		4 Shohlar 15:8-12
Isroil shohi Shallum		4 Shohlar 15:13-16
Isroil shohi Manaxim		4 Shohlar 15:17-22
Isroil shohi Pakaxiyo		4 Shohlar 15:23-26
Isroil shohi Pekax		4 Shohlar 15:27-31
Yahudo shohi Yo‘tom	27:1-9	4 Shohlar 15:32-38
Yahudo shohi Oxoz	28:1-27	4 Shohlar 16:1-20, Ishayo 14:28

Parchaning asosiy mavzusi	2 Solnomalar	O‘xshash parchalar manzillari
Yahudo shohi Hizqiyo	29:1-31:21	4 Shohlar 18:1-8
Isroilning oxirgi shohi Xo‘sheya		4 Shohlar 17:1-2
Samariyaning mag‘lubiyati		4 Shohlar 17:3-41, 18:9-12
Ossuriya qo‘shini Quddusga tahdid soladi	32:1-19	4 Shohlar 18:13-35, Ishayo 20:1, 21:16, 36:1-20
Hizqiyo Ishayo payg‘ambardan maslahat so‘raydi		4 Shohlar 19:1-13, Ishayo 37:1-13
Hizqiyoning ibodati	32:20	4 Shohlar 19:14-19, Ishayo 37:14-20
Ossuriyaning mag‘lubiyati	32:21-23	4 Shohlar 19:20-37, Ishayo 37:21-38
Hizqiyoning xastaligi	32:24-30	4 Shohlar 20:1-11, Ishayo 38:1-20
Bobildan kelgan elchilar	32:31-33	4 Shohlar 20:12-21, Ishayo 39:1-8
Yahudo shohi Manashe	33:1-20	4 Shohlar 21:1-18
Yahudo shohi Omon	33:21-25	4 Shohlar 21:19-26
Yahudo shohi Yo‘shiyo	34:1-7	4 Shohlar 22:1-2
Qonun kitobi topiladi	34:8-28	4 Shohlar 22:3-20
Shoh Yo‘shiyoning islohotlari	34:29-35:19	4 Shohlar 23:1-27
Yo‘shiyo hukmronligining so‘nggi davri	35:20-36:1	4 Shohlar 23:28-30
Yahudo shohi Yohuxoz	36:2-4	4 Shohlar 23:31-34
Yahudo shohi Yohayiqim	36:5-8	4 Shohlar 23:35-24:7
Yahudo shohi Yohayixin	36:9-10	4 Shohlar 24:8-17, Yeremiyo 52:28
Yahudo shohi Zidqiyo	36:11-21	4 Shohlar 24:18-25:30, Yeremiyo 39:1-10, 52:1-34
Shoh Kurush Yahudo xalqiga ozodlik beradi	36:22-23	Ezra 1:1-3

Eski Ahddagi boshqa kitoblar

Parchaning asosiy mavzusi	O‘xshash parchalar manzillari
Surgundan qaytib kelganlarning ro‘yxati	Ezra 2:1-70, Naximiyo 7:6-73
Ikki sanodagi o‘xshash parcha	Zabur 13:1-7, Zabur 52:2-7
Ikki sanodagi o‘xshash parcha	Zabur 30:2-5, Zabur 70:1-3
Ikki sanodagi o‘xshash parcha	Zabur 39:14-18, Zabur 69:2-6
Ikki sanodagi o‘xshash parcha	Zabur 56:8-12, Zabur 107:2-6
Ikki sanodagi o‘xshash parcha	Zabur 59:7-14, Zabur 107:7-14
Ikki sanodagi o‘xshash parcha	Zabur 113:12-19, Zabur 134:15-20
Egamizning uyi turgan tog‘	Ishayo 2:2-4, Mixo 4:1-3
Mo‘ab sharmanda bo‘ladi	Ishayo 16:6-12, Yeremiyo 48:29-36
Xudoga hamdu sano qo‘shig‘i	Yeremiyo 10:12-16, Yeremiyo 51:15-19
Egamiz Edom xalqini jazolaydi	Yeremiyo 49:9-10, 14-16, Obodiyo 1:1-6

YANGI AHDDAGI O‘XSHASH PARCHALAR JADVALI

Xushxabarlar

Parchaning asosiy mavzusi	Matto	Mark	Luqo	Yuhanno
Luqo Xushxabarining muqaddimasi			1:1-4	
Yuhanno Xushxabarining muqaddimasi				1:1-18
Iso Masihning nasl–nasabi	1:1-17		3:23-38	
Yahyo cho‘mdiruvchining tug‘ilishi haqida karomat			1:5-25	
Iso Masihning tug‘ilishi haqida karomat			1:26-38	
Maryam Elisabetni yo‘qlab boradi			1:39-56	
Yahyo cho‘mdiruvchining tug‘ilishi, Zakariyoning bashorati			1:57-80	
Iso Masihning tug‘ilishi	1:18-25		2:1-7	
Cho‘ponlar va farishtalar			2:8-20	
Isoga ism qo‘yiladi, Shimo‘nning hamdu sanosi			2:21-39	
Sharqdan kelgan munajjimlar	2:1-12			
Yusuf Maryam va chaqaloqni Misrga olib qochadi	2:13-18			
Yusuf oilasi bilan Misrdan qaytib keladi	2:19-23			
O‘smir Iso Ma’badda			2:40-52	
Yahyo cho‘mdiruvchining va’zi	3:1-12	1:1-8	3:1-18	
Iso suvga cho‘mdiriladi	3:13-17	1:9-11	3:21-22	
Isoni iblis vasvasaga soladi	4:1-11	1:12-13	4:1-13	
Yahyo cho‘mdiruvchining guvohligi				1:19-34
Isoning dastlabki shogirdlari				1:35-51
Isoning dastlabki mo‘jizasi				2:1-12
Iso savdogarlarni Ma’baddan quvadi				2:13-25
Iso va Nikodim				3:1-21
Yahyo cho‘mdiruvchi Iso Masih haqida guvohlik beradi				3:22-36

Parchaning asosiy mavzusi	Matto	Mark	Luqo	Yuhanno
Iso Jalilaga qaytadi	4:12	1:14	3:19-20, 4:14	4:1-4, 43-45
Iso va Samariyalik ayol				4:5-42
Iso ta'limotining mohiyati	4:17	1:14	4:14-15	
Iso amaldorning o'g'lini sog'aytiradi				4:46-54
Iso Kafarnahum shahriga borib o'rnashadi	4:13-16			
Isoning dastlabki shogirdlari	4:18-22	1:16-20	5:1-11	
Jinga chalingan odam		1:21-28	4:31-37	
Iso ko'p odamlarga shifo beradi	8:14-17	1:29-34	4:38-41	
Teri kasalligiga chalingan odamni Iso sog'aytiradi	8:2-4	1:40-45	5:12-16	
Iso sholni sog'aytiradi	9:2-8	2:1-12	5:17-26	
Iso Mattoni chaqiradi, ro'za tutish haqida	9:9-17	2:13-22	5:27-39	
Iso Shabbat kunida sholni sog'aytiradi				5:1-47
Shabbat kuniga rioya qilish haqida	12:1-8	2:23-28	6:1-5	
Iso Shabbat kunida qo'li shol odamni sog'aytiradi	12:9-14	3:1-6	6:6-11	
Iso Jalila ko'li bo'yida bir talay olomonga shifo beradi	12:15-21	3:7-12		
Iso o'n ikkita shogirdini tanlaydi	10:2-4	3:13-19	6:12-16	
Haqiqiy baxtiyorlik	5:1-12		6:17-26	
Tuz va nur haqida	5:13-16			
Musoning qonuni haqida	5:17-48		6:27-36	
Xayr–sadaqa, ibodat va ro'za haqida	6:1-18		(11:2-4)	
Samoviy xazina va tirikchilik tashvishlari haqida	6:19-34			
Boshqalarni hukm qilmang	7:1-6		6:37-42	
Xudodan so'ranglar	7:7-11		(11:9-13)	
Boshqalarga yaxshilik qiling	7:12		6:31	
Najot eshigi tordir	7:13-23		6:43-45	
Dono va ahmoq binokor	7:24-29		6:46-49	
Rim yuzboshisining imoni	8:5-13		7:1-10	

Parchaning asosiy mavzusi	Matto	Mark	Luqo	Yuhanno
Iso beva ayolning o‘g‘lini tiriltiradi			7:11-17	
Iso Masih va Yahyo cho‘mdiruvchi	11:2-30		7:18-35	
Gunohkor ayol Isoning oyoqlariga atir moy surtadi			7:36-50	
Isoga ergashgan ayollar			8:1-3	
Iso va shayton	12:22-37	3:19-30	11:14-23	
Yunus payg‘ambarning alomati	12:38-45		11:24-36	
Isoning onasi va ukalari	12:46-50	3:31-35	8:19-21	
Iso farziylarni va Tavrot tafsirchilarini ayblaydi			11:37-54	
Iso shogirdlariga saboq beradi			12:1-59	
Tavba va halokat, hosilsiz anjir daraxti			13:1-9	
Urug‘ sepuvchi haqida masal	13:1-9	4:1-9	8:4-8	
Masallarning maqsadi	13:10-17	4:10-12, 21-25	8:9-10, 16-18	
Urug‘ sepuvchi haqidagi masalning ma’nosi	13:18-23	4:13-20	8:11-15	
Unib chiqqan urug‘ haqida masal		4:26-29		
Begona o‘t haqida masal	13:24-30			
Xantal urug‘i, xamirturush haqida masallar	13:31-35	4:30-34		
Begona o‘t haqidagi masalning ma’nosi	13:36-43			
Yashirilgan xazina, qimmatbaho marvarid, to‘r haqida masallar	13:44-53			
Iso bo‘ronni tinchlantiradi	8:18, 23-27	4:35-41	8:22-25	
Isoga ergashish shartlari	8:19-22			
Jinga chalingan ikki odamga Iso shifo beradi	8:28-9:1	5:1-21	8:26-40	
Tirilgan qiz, sog‘aygan ayol	9:18-26	5:22-43	8:41-56	
Iso ikkita ko‘r odamga va soqov odamga shifo beradi	9:27-34			
Iso O‘z yurtida rad etiladi	13:54-58	6:1-6	4:16-31	
Iso o‘n ikki havoriyni xizmatga yuboradi	9:35-10:42	6:6-13	9:1-6	

Parchaning asosiy mavzusi	Matto	Mark	Luqo	Yuhanno
Yahyo cho‘mdiruvchining o‘limi	14:1-12	6:14-29	9:7-9	
Iso 5000 kishini to‘ydiradi	14:13-21	6:30-44	9:10-17	6:1-14
Iso suv ustida yuradi	14:22-36	6:45-56		6:15-21
Iso hayot noni, Uning abadiy hayot baxsh etuvchi so‘zlari				6:22-71
Diniy urf–odatlar va Xudoning amri	15:1-20	7:1-23		
G‘ayriyahudiy ayolning ishonchi	15:21-28	7:24-30		
Iso ko‘p odamlarga shifo beradi, 4000 kishini to‘ydiradi	15:29-38	7:31-8:9		
Farziylar va sadduqiylar Isodan alomat so‘rashadi	15:39-16:12	8:10-26		
Butrus Masihni tan oladi	16:13-20	8:27-30	9:18-21	
Iso O‘z o‘limi haqida gapiradi	16:21-28	8:31-9:1	9:22-27	
Isoning qiyofasi o‘zgaradi	17:1-13	9:2-13	9:28-36	
Jinga chalingan bolaga Iso shifo beradi	17:14-21	9:14-29	9:37-43	
Iso yana O‘z o‘limi haqida gapiradi	17:22-23	9:30-32	9:43-45	
Ma’bad solig‘i	17:24-27			
Xudo oldida kim buyuk?	18:1-14	9:33-50	9:46-50	
Gunoh qilgan birodarga muno-sabat	18:15-35			
Iso va ukalari				7:1-9
Iso Quddusga boradi			9:51-56	7:10
Isoga ergashish shartlari			9:57-62	
Iso Quddusda Chayla bayramida				7:11-52
Iso fohisha ayolni kechiradi				8:1-11
Iso Masih — olamning nuri				8:12-59
Iso tug‘ma ko‘rga shifo beradi				9:1-41
Iso — yaxshi cho‘pon				10:1-21
Shogirdlarning voizlik safari			10:1-24	
Rahmdil Samariyalik haqida masal			10:25-37	
Iso Maryam bilan Martaning uyida			10:38-42	
Ibodat haqida			11:1-13	
Shabbat kuni Iso bukri ayolga shifo beradi, xantal urug‘i haqida masal			13:10-21	
Isoni rad qilishadi				10:22-42

Parchaning asosiy mavzusi	Matto	Mark	Luqo	Yuhanno
Najot eshigi tordir			13:22-35	
Iso Shabbat kuni xastaga shifo beradi, to‘kin ziyofat haqida masal			14:1-24	
Shogirdlikning qiymati			14:25-35	
Adashgan qo‘y haqida masal			15:1-7	
Yo‘qolgan tanga haqida masal			15:8-10	
Darbadar o‘g‘il haqida masal			15:11-32	
Pishiq ish boshqaruvchi haqida masal			16:1-18	
Boy va Lazar haqida masal			16:19-31	
Gunoh haqida			17:1-10	
Lazarning o‘limi va tirilishi				11:1-44
Isoni o‘ldirish rejasi				11:45-57
Iso o‘n kishiga shifo beradi			17:11-19	
Xudoning Shohligi			17:20-37	
Beva ayol va adolatsiz qozi haqida masal			18:1-8	
Farziy va soliqchi haqida masal			18:9-14	
Nikoh va ajralish haqida	19:1-12	10:1-12		
Iso bolalarni duo qiladi	19:13-15	10:13-16	18:15-17	
Boylik va abadiy hayot	19:16-30	10:17-31	18:18-30	
Iso O‘z o‘limi to‘g‘risida uchinchi marta gapiradi	20:17-19	10:32-34	18:31-34	
Yoqub bilan Yuhannoning tilagi	20:20-28	10:35-45		
Iso ikki ko‘rga shifo beradi	20:29-34	10:46-52	18:35-43	
Iso va Zakkay			19:1-10	
O‘nta xizmatkor haqida masal			19:11-28	
Iso Quddusga tantanali kiradi	21:1-11	11:1-11	19:29-44	12:12-19
Qurib qolgan anjir daraxti	21:18-22	11:12-14, 20-26		
Iso sotuvchilarni Ma’baddan quvadi	21:12-17	11:15-19	19:45-48	
Isoning hokimiyati haqida savol	21:23-27	11:27-33	20:1-8	
Ikki o‘g‘il haqida masal	21:28-32			
Yovuz bog‘bonlar haqida masal	21:33-46	12:1-12	20:9-19	
To‘y ziyofati haqida masal	22:1-14			

Parchaning asosiy mavzusi	Matto	Mark	Luqo	Yuhanno
Soliq to‘lash haqida savol	22:15-22	12:13-17	20:20-26	
Tirilish haqida savol	22:23-33	12:18-27	20:27-38	
Eng buyuk amr	22:34-40	12:28-34	20:39-40	
Masih kimning o‘g‘li?	22:41-46	12:35-37	20:41-44	
Soxta va chin taqvodorlik	23:1-39	12:38-40	20:45-47	
Beva ayolning xayr–ehsoni		12:41-44	21:1-4	
Iso O‘z o‘limi haqida gapiradi				12:20-36
Xalqning o‘jarligi va imonsizligi				12:37-50
Iso oxirzamon haqida gapiradi	24:1-51	13:1-37	21:5-38	
Kelinning o‘nta dugonasi haqida masal	25:1-13			
Uchta xizmatkor haqida masal	25:14-30			
Qiyomat–qoyim so‘rog‘i	25:31-46			
Isoni o‘ldirish rejasi	26:1-5, 14-16	14:1-2, 10-11	22:1-6	
Isoga atir moy quygan ayol	26:6-13	14:3-9		12:1-11
Qutlug‘ ziyofatga tayyorgarchilik	26:17-20	14:12-17	22:7-14	
Iso O‘z shogirdlarining oyoqlarini yuvadi				13:1-17
Isoga xiyonat	26:21-25	14:18-21	22:21-23	13:18-30
Qutlug‘ ziyofat[1]	26:26-30	14:22-26	22:15-20	
Butrusning Isodan tonishi haqida karomat	26:30-35	14:27-31	22:24-38	13:31-38, 16:32
Iso shogirdlarini yupatib aytgan so‘zlar				14:1-16:33
Iso O‘z shogirdlari uchun ibodat qiladi				17:1-26
Isoning bog‘dagi ibodati	26:36-46	14:32-42	22:39-46	18:1
Iso hibsga olinadi	26:47-56	14:43-52	22:47-53	18:2-11
Iso oliy ruhoniy Xanan oldida				18:12-14, 19-23
Iso yahudiylarning Oliy kengashi oldida	26:57-68	14:53-65	22:54, 63-65	18:24
Butrus Isodan tonadi	26:69-75	14:66-72	22:55-62	18:15-18, 25-27

[1] Yana 1 Korinfliklar 11:23-26 ga qarang.

Parchaning asosiy mavzusi	Matto	Mark	Luqo	Yuhanno
Iso oliy kengash tomonidan hukm qilinadi	27:1-2	15:1	22:66-71	18:28
Xoin Yahudoning halokati[2]	27:3-10			
Iso Pilat huzurida	27:11-14	15:2-5	23:2-7	18:28-38
Iso Hirod oldida			23:8-12	
Iso o'limga hukm qilinadi	27:15-31	15:6-20	23:13-25	19:1-16
Iso xochga mixlanadi	27:32-44	15:21-32	23:26-43	19:17-27
Iso jon beradi	27:45-56	15:33-41	23:44-49	19:28-37
Iso dafn qilinadi	27:57-66	15:42-47	23:50-56	19:38-42
Iso tiriladi	28:1-8	16:1-8	24:1-12	20:1-9
Iso ikki ayolga zohir bo'ladi	28:9-10	16:9-11		20:10-18
Soqchilarning xabari	28:11-15			
Iso Emmaus yo'lida ikki shogirdiga zohir bo'ladi		16:12-13	24:13-35	
Iso shogirdlariga zohir bo'ladi[3]		16:14-18	24:36-49	20:19-25
Iso To'maga va boshqa shogirdlariga zohir bo'ladi				20:26-31
Iso ko'l bo'yida zohir bo'ladi				21:1-25
Iso Jaliladagi tog'da zohir bo'ladi	28:16-20			
Iso osmonga ko'tariladi[4]		16:19-20	24:50-53	

[2] Yana Havoriylar 1:18-19 ga qarang.
[3] Yana Havoriylar 1:4-8 ga qarang.
[4] Yana Havoriylar 1:9-12 ga qarang.

Havoriylar

Parchaning asosiy mavzusi	O'xshash parchalar manzillari
Shoul imonga keladi	Havoriylar 9:1-19, 22:3-16, 26:9-18, 1 Korinfliklar 15:8




Eski Ahdning qo‘lyozmalaridan “Leningrad Kodeksi”
Yunus payg‘ambar kitobidan olingan bu ibroniycha qo‘lyozma
taxminan milodiy 1000 yillarda ko‘chirilgan

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru



Eski Ahdning “Qumron qo‘lyozmalari”dan biri

Ishayo payg‘ambar kitobidan olingan bu ibroniycha qo‘lyozma taxminan miloddan oldingi 100 yillarda ko‘chirilgan



Eski Ahdning “Qadimiy yunoncha tarjima” qo‘lyozmalaridan parcha

Yoshua kitobidan olingan bu yunoncha qo‘lyozma
taxminan milodiy 200 yillarda ko‘chirilgan



Yangi Ahdning qo‘lyozmalaridan “Papirus 52” deb atalgan parcha
Yuhanno bayon etgan muqaddas Xushxabardan olingan bu yunoncha qo‘lyozma taxminan milodiy 125 yillarda ko‘chirilgan





Yangi Ahdning qo‘lyozmalaridan “Kodeks Sinaytikus”


Matto bayon etgan muqaddas Xushxabardan olingan bu yunoncha qo‘lyozma taxminan milodiy 340 yillarda ko‘chirilgan





© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru


Isroil xalqi Misrdan chiqqandan keyin bosib o'tgan yo'l
O'rta yer dengizi
Nil deltasi
Ramzes
Zo'van
GO'SHEN
Pitom
Suxot
Shur sahrosi
Buyuk achchiq ko'l
MISR
On
Nuf
Nil daryosi
Maro
Ilim
Qizil dengiz
Sin sahrosi
Sinay yarim oroli
Xazero't
Sinay tog'i
Aqaba qo'ltig'i
MIDIYON
G'azo
KAN'ON
Iordan daryosi
OMMON
Yerixo
Xashbon
Navo tog'i
O'lik dengiz
MO'AB
EDOM
Z'in cho'li
Kadesh-Barna
Punon
Poron cho'li
Yotboto
Ezyo'n-Geber
Taxmin qilingan yo'l
Taxmin qilingan boshqa yo'l
Asosiy tijorat yo'li
0 50 100 150 200
kilometr



Kan'on va uning atrofidagi yerlarning tabiiy xaritasi
0 20 40 60 80 100
kilometr
Sidon
Damashq
Tir
Xermon tog'i
Litani daryosi
Akko tekisligi
JALILA
Jalila ko'li
Yizril vodiysi
Karmil tog'i
Tovur tog'i
Yormuq daryosi
sharqiy yassi tepalik
Gilbova tog'i
Sharon tekisligi
O'rta yer dengizi
Ebal tog'i
Garizim tog'i
Iordan daryosi
Yavoq daryosi
Efrayim qirlari
Navo tog'i
Quddus
Midavo yassi tepaligi
Yahudo qir etaklari
Yahudo qirlari
Yahudo cho'li
O'lik dengiz
Arnon soyligi
Filistiya tekisligi
Bersheba
Zarad soyligi
Seir tog'lari
Nagav cho'li
Qadimiy davrdagi o'simlik dunyosi
O'rmonlar
Butazorlar va yaylovlar
Vohalar
Adirlar va cho'llar
Yillik yog'ingarchilik miqdori
1250 mm
1000 mm
750 mm
600 mm
500 mm
250 mm
125 mm
0 mm
Qirli hudud
O'rta yer dengizi
dengiz sathi
Jalila ko'li sathi
O'lik dengiz sathi
Kan'on yurtining sharqdan g'arbga ko'ndalang kesimi



O‘n ikki qabilaning hududi
Sidon
Xermon tog‘i
Tir
Dan
Xazor
Akko‘
OSHER
NAFTALI
Jalila ko‘li
ZABULUN
Tovor tog‘i
ISSAXOR
Magido‘
MANASHE
Ebal tog‘i
Garizim tog‘i
Shakam
Iordan daryosi
MANASHE
O‘rta yer dengizi
Shilo‘
EFRAYIM
GAD
DAN
BENYAMIN
Shitim
Quddus
Navo tog‘i
YAHUDO
RUBEN
Xevron
O‘lik dengiz
Bersheba
MO‘AB
SHIMO‘N
EDOM
0 20 40 60 80 100
kilometr



Quddus
shohlar davrida
Xanonil minorasi
Dovud qal'asi
Sulaymon qurdirgan devor
Boshqa shohlar qurdirgan devor
qurbongoh
Ma'bad
saroy
Qidron soyligi
Soylik
darvozasi
Gixo'n
bulog'i
Dovud
qal'asi
Siloam
hovuzi
Xinnum soyligi
0
125
250
500
metr
En-Ro'g'ol bulog'i


Isroil shohligi
Shoul, Dovud va Sulaymon davrida
Furot daryosi
Tifsax
Xomat
FINIKIYA
Sidon
Damashq
O'rta yer dengizi
Tir
Dan
Xazor
Do'r
Giladdagi Ramo't
Ashdod
Quddus
Rabba
FILISTLAR YURTI
Baytlahm
G'azo
Xevron
O'lik dengiz
Bersheba
MO'AB
Kadesh-Barna
EDOM
Ezyo'n-Geber
Shoul davrida
Dovud davrida
Sulaymon davrida
0
50
100
150
200
250
kilometr
Qizil dengiz


Isroil va Yahudo shohliklari
Isroil hududi (shimoliy shohlik)
Yahudo hududi (janubiy shohlik)
Sidon
Damashq
ORAM
FINIKIYA
Dan
Tir
Xazor
Akko'
Jalila ko'li
Do'r
Magido'
O'rta er dengizi
Bayt-Shan
Giladdagi Ramo't
ISROIL
Samariya
Shakam
Iordan daryosi
OMMON
Shilo'
Rabba
Ashdod
Baytil
Yerixo
Quddus
Baytlahm
Ashqalon
YAHUDO
Gat
G'azo
Xevron
O'lik dengiz
Bersheba
MO'AB
FILISTLAR YURTI
EDOM
Kadesh-Barna
0
20
40
60
80
100
kilometr


Kaspiy dengizi
MIDIYA
Ekbatana
Shushan
ELAM
Fors qo'ltig'i
Dajla daryosi
Bobil
Naynavo
Oshur
Furot daryosi
OSSURIYA
Xoron
Karxamish
Aleppo
Xomat
Rivlo
Damashq
Arabiston sahrosi
Ossuriya shohligi
Ossuriya shohligining hududi (taxminan miloddan oldingi 650 yillar)
0
125
250
500
kilometr
Sidon
Tir
Samariya
Quddus
Elet
Qizil dengiz
O'rta er dengizi
Tanis
Nuf
MISR
Nil daryosi



0 100 200 300
kilometr
Kaspiy dengizi
Karxamish
Xoron
Gozan
OSSURIYA
Naynavo
MIDIYA
KIPR
ORAM
Aleppo
Xomat
Rivlo
Dajla daryosi
Ekbatana
Zagros tog' tizmasi
Oshur
Firot daryosi
Sidon
Damashq
Tir
O'rta yer dengizi
Xermon tog'i
Bobil
Shushan
Samariya
OMMON
Rabba
G'azo
Quddus
YAHUDO
MO'AB
EDOM
Arabiston sahrosi
BOBIL
ELAM
Kavir daryosi
Ur
Nuf
Elet
Sinay yarim oroli
Fors qo'ltig'i
MISR
Nil daryosi
Qizil dengiz
No' (No'-Omon)
Bobil shohligi
Yahudo xalqi surgun qilingan davrda
4 Shohlar 24:10-16, 25:8-12
Yeremiyo 52:28-34
Hizqiyol 3:15
Yahudo xalqi surgunlikka olib ketilgan yo'l
Bobil shohligining hududi



Fors shohligi
Qora dengiz
O'rta yer dengizi
Qizil dengiz
Arabiston dengizi
Kaspiy dengizi
Fors qo'ltig'i
Arabiston sahrosi
Hindukush tog' tizmasi
Kavkaz tog' tizmasi
Sirdaryo
Amudaryo
Nil daryosi
Dajla daryosi
Furot daryosi
Orol dengizi
SO'G'DIYONA
BAQTRIYA
XORAZM
PARFIYA
MIDIYA
ELAM
BOBIL
PERSIS
MISR
LIVIYA
KIPR
KRIT
MAKEDONIYA
Marv
Shushan
Dhatana
Bobil
Nayanav
Ekbatana
Oshur
Xarran
Damashq
Quddus
Sidon
Tir
Xorsal
Nuf
Nof (No'-Omon)
Persepol
Tir
Afina
Vizantiy (hozirgi Istanbul)
Ozarbayjon tog'i
Mahim ma'muriy markaz
Fors shohlarining qal'asi
Viloyat nomi
Shohlar yo'li
Fors shohligining hududi
kilometr



Iskandar Zulqarnayn shohligi
Jang
Qamal
Iskandar yurgan yo'l
Iskandar Zulqarnayn shohligining hududi
HINDISTON
Arabiston dengizi
Qora dengiz
Kaspiy dengizi
Orol dengizi
Qizil dengiz
Fors qo'ltig'i
Arabiston sahrosi
Nil daryosi
Oksus daryosi
Furot daryosi
Dajla daryosi
Kaukaz tog' tizmasi
Sirdaryo
Amudaryo
XORAZM
SOG'DIYONA
BAQTRIYA
PARFIYA
MIDIYA
BOBIL
PERSIS
SURIYA
FINIKIYA
KIPR
KRIT
MISR
MAKEDONIYA
ITALIYA
ASIYA
Oyta yer dengizi
Marokanda (hozirgi Samarqand)
Buxoro
Xo'jand
Marv
Balx
Hirot
Kobul
Qandahor
Ekbatana
Shushan
Persepol
Bobil
Ur
Aleppo
Damashq
Tir
Samariya
G'azo
Qadrun
Iskandariya
Nil
Nay (Nay-Omun)
Afina
Pella
Efes
Yizantiy (hozirgi Istanbul)
Angara
Xaron
Nayzavo



Kaspiy dengizi
Qora dengiz
Qizil dengiz
O'rta yer dengizi
Atlantika okeani
Nil daryosi
Dunay daryosi
Reyn daryosi
ASSURIYA
MESOPOTAMIYA
Dajla daryosi
Furot daryosi
SURIYA
Antioxiya
KAPPADOKIYA
BITINIYA VA PONTUS
GALATIYA
KILIKIYA
KIPR
YAHUDIYA
Quddus
NABATEYA
Iskandariya
MISR
ASIYA
Efes
LIKIYA VA PAMFILIYA
MAKEDONIYA
Saloniki
Korinf
Afina
AXAYA
KRIT
Kirinaya
DALMATIYA
ITALIYA
Rim
Suraksu
Karfagen
AFRIKA
Rim imperiyasi
Rim imperiyasining hududi (miloddiy 14 yil)
Rimga qarama bo'lgan yurt
Viloyat chegarasi
Rim imperiyasining chegarasi (miloddiy 116 yil)
Rim yo'llari
0
250
500
kilometr


Falastin va uning atrofidagi yerlar Iso Masih davrida
Sidon
FINIKIYA
Zorafat
Xermon tog'i
Tir
Filip Qaysariyasi
GAULANITIS
JALILA
Kafarnahum
Baytsayda
TRAXONITIS
Ka'na
Jalila ko'li
Karmil tog'i
Tiberiyas
Nosira
O'rta yer dengizi
Gadara
Skifopolis
DEKAPOLIS
Qaysariya
SAMARIYA
Gerasa
Garizim tog'i
Sixar
Iordan daryosi
Arimateya
Emmaus
Yobnax
Yerixo
PEREYA
Azotus
Quddus
Midavo
Baytlahm
Qumron
Ashqalon
YAHUDIYA
Maxayrus
Xevron
G'azo
O'lik dengiz
Masada
Rafiya
Bersheba
Dekapolis hududi
Filip hukmronligi ostidagi Rim viloyati
Hirod Antipas hukmronligi ostidagi Rim viloyati
Po'ntiy Pilat hukmronligi ostidagi Rim viloyati
NABATEYA
0 20 40 60 80 100
kilometr


Quddus
Iso Masih davrida
Devor
Asosiy ko'chalar
Yo'llar
Qaysariyaga boradigan yo'l
Yerixoga boradigan yo'l
Baytzada hovuzi
Yaffaga boradigan yo'l
Antoniya qal'asi
hovuz
Go'lgota
Getsemaniya
Ma'bad
hovuz
Zaytun tog'i
qal'a
Hirodning saroyi
Hirod Antipasning saroyi
Pishloqchilar soyligi
Qidron soyligi
oliy ruhoniy uyi
Iso Masih so'nggi Qutlug' ziyofatni shu yerda o'tkazgan bo'lishi mumkin
Baytaniyaga boradigan yo'l
Siloam hovuzi
suv quvuri
kichik hovuz
O'lik dengizga boradigan yo'l
Xinnum soyligi
0
125
250
500
metr


Pisidiyadagi
Antioxiya
Ikoniya
Listra
Perga
Darba
Tarsus
KAPPADOKIYA
KRIT
KIPR
Antioxiya
Salamis
Pafos
Pavlusning Xushxabar
yoyish maqsadida qilgan
birinchi safari
O'rta yer dengizi
0 125 250 500
kilometr
Quddus


MAKEDONIYA
Filippi
Veriya
Salonika
Amfipolis
Troas
Korinf
Afina
Efes
Pisidiyadagi
Antioxiya
Ikoniya
Listra
Perga
Darba
KAPPADOKIYA
KRIT
Tarsus
Antioxiya
KIPR
Pafos
Salamis
Pavlusning Xushxabar
yoyish maqsadida qilgan
ikkinchi safari
O'rta yer dengizi
0 125 250 500
kilometr
Qaysariya
Quddus


MAKEDONIYA
Amfipolis
Filippi
Veriya
Neapolis
Salonika
Apolloniya
Troas
AXAYA
Assas
ASIYA
Mitilina
Pergamon
Korinf
Smirna
Pisidiyadagi
Antioxiya
Efes
Ikoniya
Mileytus
Listra
Darba
Patara
Rodos
Tarsus
Antioxiya
Pavlusning Xushxabar yoyish maqsadida qilgan uchinchi safari
O'rta yer dengizi
Tir
0 125 250 500
kilometr
Ptolemay
Qaysariya
Iskandariya
Quddus


Rim
Uch mehmonxona
Puteol
ITALIYA
LIKIYA
SURIYA
Regium
Knidus
Mura
Surakuz
RODOS
KIPR
Sidon
KRIT
MALTA
Go'zal bandargohlar
Qaysariya
Quddus
Pavlusning Rimga olib ketilishi
O'rta yer dengizi
0 125 250 500
kilometr

TO‘G‘RI YO‘L NIMA?

QIYOMAT KUNIGA QANDAY QILIB TAYYOR BO‘LAMIZ?

Kirish

Bu muhim savollarga Xudo qanday javob bergani Muqaddas bitiklarda ayon qilingan. Mazkur bo‘limda mana shu mavzu haqidagi oyatlardan chiqarilgan xulosalar keltirilgan. Oyatlardagi ruhiy haqiqatni o‘qib, ular borasida mulohaza qiling. Shunda, Xudo ayon qilgan, najotga yetaklaydigan to‘g‘ri yo‘lni va yaqinlashib kelayotgan qiyomat kuniga qanday tayyorlanishni aniq tushunib olasiz. Umid qilamizki, siz Muqaddas bitiklar orqali Xudoning ovozini eshitasiz va o‘rganganlaringizni boshqalar bilan o‘rtoqlashasiz.

Sulaymonning hikmatlari 4:18-19

Solihning yo‘li tongga o‘xshaydi, kun chiqquncha tong yorishaveradi. Fosiqning yo‘li esa zulmat kabidir, nimaga qoqilib ketishini bilmaydi. Solihlik yo‘li hayotga yetaklaydi, bu yo‘lda o‘lim yo‘qdir.

Matto 7:13-14

Iso Masih dedi: “Tor eshikdan kiringlar! Chunki halokatga olib boradigan darvoza enli, yo‘li ham kengdir. Bu yo‘ldan yurayotganlar ko‘p. Hayotga olib boradigan eshik esa juda tor, yo‘li ensizdir. Bu yo‘lni topadiganlar oz.”

MUNDARIJA

XUDO MUQADDASDIR
INSONLAR XUDONING YO‘LIDAN OZGAN
INSONLAR XUDO OLDIDA JAVOB BERADI
XUDO MEHR–MUHABBATLIDIR
XUDO NAJOTKORIMIZDIR
XUDO HOZIRLAGAN YO‘L
XUDO KECHIRUVCHIDIR
HAMMAMIZ IMON KELTIRISHIMIZ KERAK
XUDO SADOQATLIDIR
XUDO O‘Z RUHINI BAXSH ETADI
BIZ XUDONING AZIZ XALQIMIZ
BIZ YOLG‘IZ EMASMIZ
SIZ TAYYORMISIZ?

XUDO MUQADDASDIR

Xudo muqaddasdir va faqatgina muqaddas bo‘lganlar Uning huzuriga kirib, yashay oladi.

Vahiy 4:8

Samodagi to‘rtta jonli mavjudot kechayu kunduz tinmay shunday so‘zlarni takrorlar edilar:

> “Muqaddasdir, muqaddasdir,
> Muqaddasdir Qodir Xudo — Egamiz.
> U bor bo‘lgan, hozir ham bor,
> Kelajakda ham bor bo‘lar!”

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

1 Butrus 1:14-16
Xudoga itoatkor farzandlar bo‘linglar, oldingi g‘aflat paytida sizlarni qamragan ehtiroslarga qul bo‘lib qolmanglar. Aksincha, butun yurish–turishingizda muqaddas bo‘linglar, zero, sizlarni da’vat etgan Xudo muqaddasdir. Axir, Xudoning O‘zi: “Muqaddas bo‘linglar, chunki Men muqaddasman”, deb aytgan.

Ibroniylar 12:14
Hamma bilan tinch–totuv yashashga harakat qilinglar. Halol hayot kechirishga tirishinglar, aks holda, Egamizni ko‘ra olmaysizlar.

1 Yuhanno 1:5-6
Biz Iso Masihdan eshitib, sizlarga yetkazayotgan Xushxabarimiz shundan iborat: Xudo — nur, Unda hech qanday zulmat yo‘q. Agar biz Xudo bilan yashayapmiz deb turib, oldingiday zulmatda yashasak, yolg‘on gapirib, haqiqatga xilof ish qilgan bo‘lamiz.

Yana qarang:

Zabur 1:1-6, 14:1-5 To‘g‘ri yo‘ldan yuradigan insonlar — kim?

INSONLAR XUDONING YO‘LIDAN OZGAN

Hammamiz Xudoning qonunlarini buzib, gunoh qilganmiz, to‘g‘ri yo‘ldan ozganmiz.

Rimliklar 3:10-12
Axir, Muqaddas bitiklarda quyidagiday yozilgan–ku: “Hech bir solih kimsa yo‘qdir, hatto bironta ham yo‘q! Bironta ham idrokli zot yo‘q, hech kim Xudoga yuz burmaydi. Hammasi yo‘ldan ozgan, birday buzilgan, yaxshilik qiluvchi bir kimsa yo‘qdir, hatto bironta ham yo‘q!”[1]

Rimliklar 3:23
Hamma gunoh qilgan va Xudoning ulug‘vorligidan mahrumdir.

Yana qarang:

Matto 5:17-48 Iso Masihning haqiqiy solihlik haqidagi ta’limoti.

INSONLAR XUDO OLDIDA JAVOB BERADI

Qiyomat kunida hammamiz qilmishlarimiz uchun javob beramiz.

Ibroniylar 4:13
Butun borliq Xudoning ko‘zi oldida yap–yalang‘och va ochiqdir. Hech kim va hech narsa Undan pinhon emas. Biz Unga hisob beramiz!

Ibroniylar 10:26-27
Agar biz haqiqatni bilib olgandan keyin, ataylab gunoh qilishda davom etsak, bu gunohlarimizni hech qanday qurbonlik yuva olmaydi. Shunda qo‘rquv ichra Xudoning hukmini kutishdan boshqa ilojimiz qolmaydi. Oqibatda, Xudoning dushmanlari bilan birga lovullagan olovda yonish bizning qismatimiz bo‘ladi.

Yana qarang:

Vahiy 20:11-15 Qiyomat kuni haqidagi vahiy.

[1] Zabur 13:1-3 ga qarang.

XUDO MEHR–MUHABBATLIDIR

Xudo bizni yaxshi ko‘radi va bizni kechirishga tayyor turibdi.

Yuhanno 3:16

Xudo olamni shunchalik sevdiki, O‘zining yagona O‘g‘lini berdi. Toki Unga ishonganlardan birontasi halok bo‘lmasin, balki abadiy hayotga ega bo‘lsin.

Rimliklar 5:8

Biz hali gunohga botgan chog‘imizda, Masih biz uchun o‘ldi. Shu yo‘sinda Xudo bizga bo‘lgan O‘z mehr–muhabbatini namoyon qildi.

Yana qarang:

Luqo 15:11-32 Iso Masih aytgan darbadar o‘g‘il haqidagi masal.

XUDO NAJOTKORIMIZDIR

Xudo gunohlarimizning kechirilishi va qiyomat hukmidan qutqarilishimiz uchun Iso Masih orqali bizga yo‘l ochib berdi.

Yuhanno 3:17

Xudo dunyoni hukm qilish uchun emas, balki O‘g‘li orqali qutqarish uchun Uni dunyoga yubordi.

Havoriylar 10:41-43

Butrus dedi: “Iso hammaga emas, faqat bizga zohir bo‘ldi. Chunki Xudo bizni Iso haqida guvohlik berishimiz uchun tanlagandi. Iso tirilgandan keyin biz U bilan yeb–ichdik. U bizga: «Xalqlarga va’z qilib, guvohlik beringlar. O‘liklar va tiriklarni hukm qilish uchun Xudo Meni tayinlaganini ularga aytinglar», — deb buyurdi. Barcha payg‘ambarlar ham Iso to‘g‘risida guvohlik bergan edilar. Isoga ishongan har bir odamning gunohlari Uning nomi tufayli kechiriladi, deb aytgan edilar.”

Yuhanno 1:29

Ertasi kuni Yahyo Isoning yaqinlashib kelayotganini ko‘rib, shunday dedi: “Ana, Xudoning Qo‘zisi! U dunyoni gunohdan poklaydi!”

1 Korinfliklar 15:3-4

Menga berilgan eng muhim ta’limotni sizlarga yetkazdim. Bu ta’limot quyidagichadir: Muqaddas bitiklarga muvofiq, Masih gunohlarimiz uchun o‘lgan. Keyin U dafn qilindi, uchinchi kuni esa tirildi. Bularning hammasi Muqaddas bitiklarga muvofiq sodir bo‘ldi.

2 Korinfliklar 5:19-21

Ha, Xudo insonlarni gunohlari uchun jazolamadi, aksincha, Masih orqali dunyoni O‘zi bilan yarashtirdi…. Biz Masihning elchilarimiz, Xudo biz orqali insonlarga murojaat etyapti. Masih nomidan yolvoryapmiz: sizlar ham Xudo bilan yarashinglar. Axir, Xudo bizni Masih orqali oqlash uchun begunoh Masihni gunohkorni jazolaganday, jazoladi.

Yana qarang:

Yuhanno 10:7-18 Iso Masih — najot eshigi va yaxshi cho‘pon.

XUDO HOZIRLAGAN YO‘L

Qiyomat kunida hukmdan qutulishimizning faqat birgina to‘g‘ri yo‘li bor.

Havoriylar 4:12

Najot boshqa hech kimdan kelmaydi. *Iso Masihning* nomi — butun olamda najot beradigan yagona nomdir.

Yuhanno 14:6

Iso ularga dedi: “Men yo‘l, haqiqat va hayotdirman. Otaning oldiga olib boradigan Mendan boshqa yo‘l yo‘q.”

Filippiliklar 2:9-11

Xudo *Iso Masihni* eng yuqoriga yuksaltirdi va Unga har qanday ismdan yuqori ismni ato etdi. Toki Isoning oldida yeru osmondagi va yer ostidagi borliq jon tiz cho‘ksin, har bir til Iso Masihni Rabbiy deb tan olib, Otamiz Xudoga sharaf keltirsin.

Yana qarang:

Luqo 16:19-31 Iso Masih aytgan boy va Lazar haqidagi masal.

XUDO KECHIRUVCHIDIR

Biz gunohlarimizni e’tirof etib, tavba qilishimiz kerak, shunda Xudo bizni kechiradi.

1 Yuhanno 1:8-10

Agar gunohimiz yo‘q desak, o‘zimizni o‘zimiz aldagan bo‘lamiz va bizda haqiqat bo‘lmaydi. Bordi–yu, gunohlarimizni e’tirof etsak, sodiq va adolatli bo‘lgan Xudo gunohlarimizni kechirib, bizni har qanday yomonlikdan forig‘ qiladi. Agar gunoh qilganimiz yo‘q desak, Xudoni yolg‘onchiga chiqargan bo‘lamiz.

Yana qarang:

Luqo 18:9-14 Iso Masih aytgan farziy va soliqchi haqidagi masal.

HAMMAMIZ IMON KELTIRISHIMIZ KERAK

Rabbimiz Iso Masihga ishonishimiz shart. Unga ishonadiganlar to‘g‘ri yo‘ldadir.

Havoriylar 16:30-31

Zindonbon *Pavlus va Silasni* tashqariga olib chiqib: “Janoblar, najot topishim uchun nima qilishim kerak?” deb so‘radi. “Rabbimiz Isoga ishon, shunda o‘zing va xonadon ahling najot topasizlar”, — deb javob berishdi ular.

Rimliklar 10:9-11, 13

Agar o‘z og‘zingiz bilan Isoni Rabbim deb e’tirof etib, Xudo Uni o‘likdan tiriltirganiga chin yurakdan ishonsangiz, najot topasiz. Chunki inson qalbidan ishonib oqlanadi va og‘zi bilan e’tirof etib najot topadi. Muqaddas bitiklarda yozilganday: “Unga ishongan hech bir inson uyatga qolmaydi.”… Axir, “Rabbimizga iltijo qilgan har bir inson qutqariladi”, deb yozilgan–ku.

Yana qarang:

Matto 13:44-46 Iso Masih aytgan yashirilgan xazina va qimmatbaho marvarid haqidagi masallar.

Matto 22:1-14 Iso Masih aytgan to‘y ziyofati haqidagi masal.

XUDO SADOQATLIDIR

Iso Masihga imon keltirganimizda, Xudo bizni hukm qilmasligiga va bizga abadiy hayot berishiga amin bo‘lamiz.

Yuhanno 3:18

Xudoning O‘g‘liga ishongan odam hukm qilinmaydi. Unga ishonmagan odam esa allaqachon mahkum bo‘lgan, chunki u Xudoning yagona O‘g‘liga ishonmadi.

Yuhanno 3:35-36

Ota O‘g‘lini yaxshi ko‘radi, U hamma narsani O‘g‘lining qo‘liga topshirgan. Xudoning O‘g‘liga ishongan har bir odam abadiy hayotga ega bo‘ladi. O‘g‘ilni rad etgan odam esa hayot ko‘rmay, Xudoning g‘azabi ostida qoladi.

Rimliklar 8:1

Iso Masihga tegishli bo‘lganlar endi hukm qilinmaydilar.

Yana qarang:

Rimliklar 8:31-39 Xudoning Iso Masihga ishonganlarga qo‘rsatadigan mehr–muhabbati.

XUDO O‘Z RUHINI BAXSH ETADI

Iso Masihga imon keltirganimizda, Xudo bizni O‘zining Muqaddas Ruhiga to‘ldiradi. Solih hayot kechirishimiz uchun, to‘g‘ri yo‘ldan ozmasligimiz uchun Muqaddas Ruh bizga kuch–qudrat beradi.

Havoriylar 1:4-5, 8

Iso O‘z havoriylari bilan dasturxon atrofida o‘tirar ekan, ularga shunday amr berdi: “Quddusdan ketib qolmanglar, osmondagi Otamning bergan va’dasi bajo bo‘lishini kutinglar. Bu va’da haqida oldin ham sizlarga aytgan edim. Yahyo odamlarni suvga cho‘mdirar edi, sizlar esa yaqin kunlarda Muqaddas Ruhga cho‘mdirilasizlar.... Muqaddas Ruh sizlarni qamrab olganda, kuch–qudratga to‘lasizlar. Quddusda, Yahudiya va Samariyada, yer yuzining hamma burchaklarida sizlar Mening shohidlarim bo‘lasizlar.”

Havoriylar 2:38

Butrus ularga dedi: “Tavba qilinglar, har biringiz Iso Masihning nomi bilan suvga cho‘minglar, toki gunohlaringiz kechirilsin. Shunda sizlar Muqaddas Ruhni in’om qilib olasizlar.”

Efesliklar 5:18

Sharob ichib mast bo‘lmanglar, chunki bu buzuqlikka olib boradi. Aksincha, Muqaddas Ruhga to‘lib–toshinglar.

Yana qarang:

Galatiyaliklar 5:16-26 Muqaddas Ruh yetakchiligida hayot kechirish.

BIZ XUDONING AZIZ XALQIMIZ

Iso Masihga imon keltirganimizda, biz Xudoning aziz xalqiga tegishli bo‘lib qolamiz.

Efesliklar 2:19-22

Demak, sizlar endi begona ham, kelgindi ham emassizlar, balki Xudoning aziz xalqi qatoridasiz, Uning xonadoni a’zosi bo‘ldingizlar. Sizlar xuddi bir binodaysizlar. Bu binoning asosi havoriylaru payg‘ambarlardir. Binoning tamal toshi esa Iso Masihning

O‘zidir. Bu imorat Rabbimiz Iso Masih orqali bir bo‘lib, yuksalib boradi va Unga bag‘ishlangan muqaddas ma’bad bo‘ladi. Iso Masihga tegishli bo‘lganingiz uchun sizlar ham bu imoratning bir qismisiz. Bu imoratni Xudoning Ruhi O‘ziga maskan qilib oladi.

1 Butrus 2:9-10

Sizlar — tanlangan bir nasl, ruhoniylar shohligi, muqaddas qavm, Xudoning aziz xalqisiz. Xudo sizlarni zulmatdan O‘zining ajoyib nuriga da’vat etgan, Uning buyuk ishlarini e’lon qilishingiz uchun sizlarni tanlagan. Sizlar bir vaqtlar Xudoga begona edingizlar, endi esa Uning xalqisizlar. Bir vaqtlar Xudoning marhamatidan bebahra edingizlar, endi esa Undan marhamat topdingizlar.

Yana qarang:

Vahiy 21:1-8, 22–27 Yangi yeru osmon, yangi Quddus haqidagi vahiy.

BIZ YOLG‘IZ EMASMIZ

Iso Masihga imon keltirganlar bilan muntazam ravishda uchrashib turishimiz kerak.

Matto 18:20

Iso dedi: “Qayerda ikki yoki uch kishi Mening nomim uchun yig‘ilsa, Men o‘sha yerda ularning orasida bo‘laman.”

Havoriylar 2:42, 46

Imonlilar havoriylarning ta’limotini o‘rganishga, birodarlikka, Rabbimiz Isoni xotirlab, non sindirishga va ibodatga o‘zlarini bag‘ishladilar…. Imonlilar har kuni Ma’badda yig‘ilardilar. Bir–birlarinikiga mehmonga borganda esa Rabbimiz Isoni xotirlash uchun non sindirardilar, soddadillik bilan, yurakdan sevinib ovqatlanishardi.

Yana qarang:

Ibroniylar 3:12-14, 10:23-25 Imonlilarga ogohlantirish.

SIZ TAYYORMISIZ?

Dono insonlar Xudodan qo‘rqadi. Ular to‘g‘ri yo‘ldan yurib, Qiyomat kuniga tayyor bo‘ladi.

Sulaymonning hikmatlari 9:10, 14:27

Egamizdan qo‘rqish donolikning boshidir, Muqaddas Xudoni bilish idrokdir. Egamizdan qo‘rqish hayot manbaidir, bunday xislat odamni o‘lim tuzog‘idan asraydi.

Matto 4:4

Iso *iblisga* javoban dedi: “Yozilganki: «Inson faqat non bilan emas, balki Xudoning og‘zidan chiqqan har bir so‘z bilan yashaydi.»”

Yana qarang:

Matto 7:24-27, Luqo 12:42-48 Iso Masih aytgan dono va ahmoq binokorlar hamda hushyor xizmatkorlar haqidagi masallar.

Zabur 90:1-16 Xudo Unga umid bog‘laganlarni himoya qilib, sog‘–omon saqlaydi.

TO‘G‘RI YO‘LDAN YURISHDA YORDAM BERADIGAN OYATLAR RO‘YXATI

Kirish

Ushbu qismda yuzga yaqin mavzuni o‘z ichiga olgan, hayotimiz uchun zarur, haqiqatni ko‘rsatadigan oyatlar bor. Bu oyatlar Muqaddas Kitobdagi donolik ummonining bir tomchisi, xolos. Ular beshta asosiy mavzu ostida berilgan. Ushbu ro‘yxatdagi oyatlar sizga Muqaddas bitiklarda muhim hayotiy mavzular haqida nimalar deyilganini ko‘rsatadi. Umid qilamizki, siz bu oyatlarni o‘qib, Xudo haqida va Xudoga manzur hayot qanday bo‘lishi haqida o‘rganasiz hamda hayotingizda uchraydigan kundalik vaziyatlarda mana shu oyatlar tufayli donolik bilan ish yuritib, ulardan tasalli topasiz.

MUNDARIJA

XUDONING FAZILATLARI TO‘G‘RISIDAGI OYATLAR
RUHIY HAYOTIMIZGA OID OYATLAR
INSON FAZILATLARI VA ILLATLARI TO‘G‘RISIDAGI OYATLAR
MUNOSABATLAR TO‘G‘RISIDAGI OYATLAR
HAYOTDA UCHRAYDIGAN VAZIYATLARDA YORDAM BERADIGAN OYATLAR

XUDONING FAZILATLARI TO‘G‘RISIDAGI OYATLAR

Xudo inoyatlidir

Zabur 85:15

Sen, ey Rabbiy, rahmdil va inoyatli, Jahli tez chiqmaydigan Xudosan, Sevging va sadoqating mo‘ldir.

Zabur 144:8-9, Yuhanno 1:16-17, Yoqub 4:6, 1 Butrus 5:10, Efesliklar 2:7, 2 Timo‘tiy 1:9

Xudo kechiruvchidir

Zabur 85:5

Sen, ey Rabbiy, yaxshisan, kechirimlisan, Senga iltijo qilganlarga Sodiq sevgingni ko‘rsatasan.

Zabur 129:3-4, 2 Butrus 3:9, 1 Yuhanno 1:8-9, Efesliklar 1:7-8, Efesliklar 4:32, Ibroniylar 10:15-18

Xudo mangudir

Vahiy 1:8

“Men Ibtido va Intihodirman, — deb aytmoqda Egamiz Xudo. — Men oldin bor bo‘lgan, hozir ham bor, kelajakda ham bor bo‘ladigan Qodir Xudodirman.”

Rimliklar 1:20, 1 Timo‘tiy 1:17

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

Xudo marhamat koʻrsatuvchidir

Ibroniylar 4:16

Kelinglar, inoyatli Xudoyimizning taxtiga jasorat bilan yaqinlashaylik. Shunda U bizga marhamat koʻrsatadi, Uning inoyati zarur vaqtda bizga yordam beradi.

Zabur 10:7, Hikmatlar 12:2, Luqo 1:50, Yahudo 1:21

Xudo mehr–muhabbatlidir

Zabur 35:6, 8

Ey Egam, sodiq sevging falaklarga yetgaydir, Ey Egam, sadoqating samolarga choʻzilgaydir….Sodiq sevging, ey Xudo, naqadar bebahodir! Qanotlaring soyasida insonlar panoh topadi.

Zabur 12:6, Zabur 62:4, Zabur 85:15, Yuhanno 3:16, 1 Yuhanno 3:16-17, 1 Yuhanno 4:7-19, Rimliklar 5:6-8, Rimliklar 8:38-39, Efesliklar 2:4-5

Xudo mehr–shafqatlidir

Luqo 1:78

Zero, Xudoyimiz mehr–shafqatga boy, U samodan bizga ufq Nurini sochadi.

Zabur 22:6, Zabur 24:6, Yoqub 5:11, Efesliklar 2:4-7

Xudo mehribondir

Zabur 114:5

Egamiz mehribon, odildir, Xudoyimiz rahmdildir.

Zabur 83:12, Rimliklar 2:4

Xudo muqaddasdir

Zabur 98:9

Ulugʻlanglar Egamiz Xudoni! Sajda qiling Unga muqaddas togʻida. Zero, muqaddasdir Egamiz Xudo!

Zabur 21:4, 1 Butrus 1:14-16, Vahiy 4:8, Vahiy 15:4

Xudo najotkorimizdir

Zabur 26:1

Egam nurim va najotimdir, Kimdan qoʻrqaman?! Egam hayotimning qalʼasidir, Kim meni qoʻrqita olar?!

Zabur 36:39-40, Zabur 61:6-8, Havoriylar 4:11-12, 1 Timoʻtiy 4:10, Titus 3:4-6

Xudo odildir

Zabur 24:8

Egamiz yaxshi, adolatlidir! U gunohkorlarga yo‘l–yo‘riq ko‘rsatadi.

Hikmatlar 11:1, 1 Butrus 1:17, 2 Salonikaliklar 1:5-8, Vahiy 15:3-4

Xudo ta’minlovchimizdir

Zabur 15:5

Ey Egam! Barqarorligim Sensan, Muvaffaqiyatim ham O‘zingdirsan, Kelajagimni Sen ta’minlaysan.

Zabur 36:25-26, Zabur 64:10, Matto 6:25-34, Matto 7:9-11, Havoriylar 14:16-17, Filippiliklar 4:19

Xudo tinchlik beruvchidir

Zabur 84:9

Parvardigor Egamiz aytayotganiga quloq solaman, U O‘z xalqiga, O‘z taqvodorlariga tinchlik va’da qilayotir, Endi ular bema’ni yo‘llariga qaytmasin.

Hikmatlar 16:7, Yuhanno 16:33, Rimliklar 5:1, Filippiliklar 4:6-9, 2 Salonikaliklar 3:16

Xudo ulug‘vordir

Zabur 95:9

Muqaddas ulug‘vorlikka burkangan Egamizga sajda qiling! Ey zamin ahli, Uning oldida titrab turing!

Zabur 23:7-10, Zabur 92:1, Yuhanno 1:14, Vahiy 21:23-25

Xudo shodlik ato qiluvchidir

Zabur 15:11

Menga hayot so‘qmog‘ini O‘zing ko‘rsatasan, Huzuringda shodlik meni qamrab oladi, Menga boqiy huzur–halovatni Sen berasan.

Zabur 29:6, Rimliklar 15:13, Galatiyaliklar 5:22-23

Xudo yagona Xudodir

Zabur 17:32

Egamizdan boshqa Xudo kim ekan?! Xudoyimizdan bo‘lak suyanchiq Qoya bormikan?!

Mark 12:28-33, Rimliklar 3:29-30, 1 Korinfliklar 8:5-6

Xudo yaqindir

Zabur 144:18

Egamiz O‘ziga yolvorganlarning yonidadir, Chin dildan iltijo qilganlarning yonidadir.

Zabur 33:19, Zabur 74:2, Zabur 138:7-12, Havoriylar 17:27

Xudo o‘zgarmasdir

Zabur 101:28

Sen esa hech o‘zgarmassan, Sen to abad yashaysan.

Zabur 32:11, Zabur 101:25-28, Yoqub 1:17

Xudo qudratlidir

Zabur 92:4

Yuksakdagi Egamiz dengiz to‘lqinlaridan ham qudratliroqdir, Bahaybat suvlarning pishqirishidan ham qudratliroqdir.

Zabur 88:9, Luqo 1:46-55, Vahiy 4:11, Vahiy 19:1

Xudo hayot manbaidir

Zabur 35:10

Hayotning bulog‘i Sendadir, Ziyo olarmiz Sening nuringdan.

Zabur 103:30, Zabur 138:13-16, Yuhanno 1:1-5, Yuhanno 5:24-26, Yuhanno 14:6, Havoriylar 17:24-25

Xudo hamma narsani bilguvchidir

Zabur 138:1-5

Ey Egam, meni O‘zing sinab ko‘rib, bilgansan, Qachon o‘tirib, qachon turishimni O‘zing bilasan, O‘y–xayollarimni uzoqdan turib anglab olasan, Yurishimni, yotishimni Sen tekshirasan, Barcha yo‘llarim Senga oyday ravshandir. Biron so‘z tilimga kelmasdan oldin, Ey Egam, Sen hammasini bilasan. Meni hamma tomondan o‘rab olgansan, Qo‘llaringni ustimga qo‘ygansan.

Zabur 33:16-19, Ibroniylar 4:13

RUHIY HAYOTIMIZGA OID OYATLAR

Abadiy hayot haqida

Yuhanno 3:16

Zero, Xudo olamni shunchalik sevdiki, O‘zining yagona O‘g‘lini berdi. Toki Unga ishonganlardan birontasi halok bo‘lmasin, balki abadiy hayotga ega bo‘lsin.

Yuhanno 5:24, Yuhanno 10:27-28, Yuhanno 17:1-3, 1 Yuhanno 5:11-12, Rimliklar 6:23

Gunoh haqida

1 Yuhanno 2:1-2

Aziz bolalarim, gunoh qilmanglar deb, men sizlarga shularni yozyapman. Bordi–yu, birortamiz gunoh qilib qo‘ysak, Otamiz Xudoning oldida homiyimiz — Iso Masih bor, U Solih Zotdir. U bizni gunohlarimizdan poklash uchun qurbon bo‘ldi. Nafaqat bizning, balki butun dunyoning gunohlari uchun qurbon bo‘ldi.

Zabur 89:8, Hikmatlar 13:21, 1 Yuhanno 1:8-10, Rimliklar 5:6-8, Rimliklar 6:23, Efesliklar 2:1-9

Jasorat bilan Xushxabar aytish haqida

Rimliklar 1:16

Men Xushxabardan or qilmayman, chunki Xudoning kuch–qudrati bo‘lgan bu Xushxabar orqali unga ishonganlarning hammasi qutqariladi. Ishonadiganlar yahudiymi, g‘ayriyahudiymi, farqi yo‘q!

Havoriylar 4:18-20, 31, 1 Korinfliklar 16:13, 1 Salonikaliklar 2:1-2, Ibroniylar 3:6

Ibodat haqida

Matto 6:9-13

Sizlar esa shunday ibodat qilinglar: “Bizning osmondagi Otamiz! Sening muqaddas noming ulug‘lansin. Sening Shohliging kelsin. Osmonda bo‘lgani kabi, Yerda ham Sening irodang bajo bo‘lsin. Bugungi rizqimizni bergin. Bizga qarshi gunoh qilganlarni biz kechirgandek, Sen ham bizning gunohlarimizni kechirgin. Bizni vasvasaga duchor qilmagin, Yovuz shaytondan xalos qilgin.”

Zabur 65:16-20, Hikmatlar 15:8, Matto 6:5-13, Matto 7:7-11, Luqo 18:1-8, 1 Yuhanno 5:14-15, Rimliklar 8:26-27, 1 Timo‘tiy 2:1-2

Najot haqida

Yuhanno 14:6

Iso unga dedi: — Men yo‘l, haqiqat va hayotdirman. Otaning oldiga olib boradigan Mendan boshqa yo‘l yo‘q.

Yuhanno 3:16-17, Havoriylar 2:36-39, Havoriylar 16:29-31, Rimliklar 10:9-10, 1 Timo‘tiy 2:4-6

Poklik haqida

Hikmatlar 11:20

Egri yurak Egamizga jirkanch, poklarning ishlari esa Uning quvonchidir.

Zabur 7:11, Zabur 18:10, Hikmatlar 11:5, Matto 5:8, 1 Yuhanno 2:1-2, 2 Korinfliklar 7:1, Filippiliklar 4:8

Ruhiy jang haqida

Efesliklar 6:11-12

Iblisning hiylalariga qarshi tura olishingiz uchun Xudo bergan barcha qurol–aslahalar bilan qurollaning. Axir, bizning kurashimiz insonlarga qarshi emas, balki samoviy olamdagi yovuz ruhiy kuchlarga, ruhiy hokimiyat va hukmronlikka hamda bu qorong‘i dunyoni boshqarayotgan ruhiy hukmronlarga qarshidir.

1 Butrus 5:8-9, Rimliklar 8:38-39, 2 Korinfliklar 10:3-5, Efesliklar 6:10-18, 2 Salonikaliklar 3:3

Ro‘za tutish haqida

Matto 6:16-18

Ro‘za tutayotganingizda, ikkiyuzlamachilar kabi, qovoq solib yurmanglar. Ular ro‘za tutayotganlarini boshqalarga ko‘rsatish uchun yuvinib–taranmaydilar. Sizlarga chinini aytayin: ular o‘z mukofotlarini olib bo‘lganlar. Sizlar ro‘za tutganlaringizda yuzlaringizni yuvib, sochlaringizni tarab yuring, toki ro‘za tutganingizni yashirin bo‘lgan Otangizdan boshqa hech kim bilmasin. Shunda yashirin qilgan ishingizni ko‘rgan Otangiz sizni taqdirlaydi.

Mark 2:18-20, Luqo 18:9-14, Havoriylar 13:2-3

Solihlik haqida

Hikmatlar 11:19

Solihlikni ko‘zlagan inson hayotga, yomonlikni ko‘zlagan esa o‘z o‘limiga erishadi.

Zabur 33:16, Zabur 36:16-17, Hikmatlar 10:11, Hikmatlar 12:26, Rimliklar 1:17, Filippiliklar 3:8-9, 2 Timo‘tiy 4:8

Tinchlik haqida

Yuhanno 14:27

Men sizlarga tinchlikni qoldiryapman. O‘z tinchligimni sizlarga beryapman. Men berayotgan tinchlik dunyo beradigan tinchlikka o‘xshamaydi. Yuragingiz siqilmasin, qo‘rqmanglar.

Zabur 33:15, Hikmatlar 12:20, Matto 5:9, Yuhanno 16:33, Rimliklar 5:1, Rimliklar 8:6, Kolosaliklar 3:15

Xudoga shukrona aytish haqida

Zabur 68:31-32

Nomini kuylab, Xudoni madh qilaman, Shukur aytib, Uni maqtayman. Qurbonlik qilingan buzoqdan, hatto buqadan ko‘ra, Hamdlarim Egamni ko‘proq mamnun qiladi.

Zabur 94:1-5, Zabur 99:1-5, Zabur 105:1-2, Filippiliklar 4:6-7

Xudoning yetakchiligi haqida

Hikmatlar 3:5-6

O‘z aql–idrokingga suyanma, butun qalbing bilan Egamizga ishon. Har ishingda Egamizni e’tirof et, shunda U yo‘llaringni to‘g‘rilaydi.

Zabur 31:8-9, Zabur 36:5, Hikmatlar 4:20-22, Yoqub 1:5-8

INSON FAZILATLARI VA ILLATLARI TO‘G‘RISIDAGI OYATLAR

Dangasalik haqida

Hikmatlar 10:4

Dangasa qo‘llar qashshoqlik keltiradi, tirishqoq qo‘llar esa boylik.

Hikmatlar 6:6-11, 1 Salonikaliklar 4:11, 2 Salonikaliklar 3:6-13

Yolg‘on gapirish haqida

Hikmatlar 12:22

Yolg‘onchi til Egamizga jirkanch, to‘g‘rilik bilan ish qiladiganlar esa Uning sevinchidir.

Zabur 33:12-14, Hikmatlar 11:1, Hikmatlar 19:22, Kolosaliklar 3:9

Jinsiy axloqsizlik haqida

1 Salonikaliklar 4:3-5

Sizlarning muqaddas bo‘lishingiz Xudoning irodasidir. Shuning uchun jinsiy axloqsizlik qilmang. Har biringiz muqaddaslik va izzat–hurmatga loyiq tarzda o‘zingizni tuta bilishingiz kerak. Xudoni bilmagan butparastlarday shahvoniy hirsga qul bo‘lmang.

1 Korinfliklar 6:15-20, 1 Korinfliklar 10:6-8, Galatiyaliklar 5:19-21, Kolosaliklar 3:5-7

Itoatkorlik haqida

1 Yuhanno 2:5

Xudoning kalomiga itoat qilgan odamda esa Xudoning sevgisi o‘z mukammal ifodasini topgan. Biz Xudo bilan birga ekanimizni ana shundan bilsak bo‘ladi.

Zabur 39:7, Zabur 50:14, Yuhanno 14:23-24, Ibroniylar 5:7-9

Kamtarlik haqida

Hikmatlar 18:12

Takabburlik halokatga olib boradi, kamtarlik esa izzatu ikromga sazovor qiladi.

Zabur 24:9, Hikmatlar 11:2, Hikmatlar 29:23, Matto 18:1-5, Luqo 18:9-14, 1 Butrus 5:5-6, Filippiliklar 2:3-11

Mayxo‘rlik haqida

Hikmatlar 20:1

Sharob — mazaxchi, aroq — janjalkash, ularga aldanganlar nodondir.

Hikmatlar 23:20-21, 1 Butrus 4:3, 1 Korinfliklar 5:11, 1 Korinfliklar 6:9-10, Efesliklar 5:18

Mehribonlik haqida

Zabur 111:4

Hatto zulmatda ham to‘g‘ri insonga nur yog‘iladi, Rahmdil, mehribon, solih odamga yog‘du sochiladi.

Hikmatlar 11:16, Hikmatlar 12:10, 1 Korinfliklar 13:4

Minnatdorchilik haqida

Zabur 117:28-29

Sen Xudoyimsan, Senga shukur aytaman, Sen Xudoyimsan, Seni ulug‘layman. Egamizga shukrona ayting, U yaxshidir, Uning sodiq sevgisi abadiydir.

Kolosaliklar 2:6-7, Kolosaliklar 3:15-17, Ibroniylar 12:28

Muloyimlik haqida

Hikmatlar 25:15

Sabr–toqat bilan gapirilsa amaldor ham ko‘nadi, muloyim so‘z toshni ham sindiradi.

1 Butrus 3:15-16, Galatiyaliklar 6:1, Efesliklar 4:1-3, Filippiliklar 4:5

Rahmdillik haqida

Hikmatlar 19:17

Kambag‘alga rahm qilish — Egamizga qarz berishday, U yaxshilikni qaytaradi.

Hikmatlar 21:10, Matto 5:7, Matto 9:13, Yoqub 2:12-13, Kolosaliklar 3:12

Sabr–toqat haqida

Hikmatlar 14:29

Sabr–toqatli odam aql–idroklidir, jahldorlik ahmoqlikni bildiradi.

Yoqub 5:7-8, Rimliklar 12:12, 1 Korinfliklar 13:4, Kolosaliklar 3:12-13, Ibroniylar 12:7

Saxiylik haqida

Hikmatlar 11:24-25

Ba’zilarning qo‘li ochiq, ammo boyligi ko‘payaveradi. Ba’zilar haddan tashqari tejamkor, ammo qashshoqlashaveradi. Saxiyning biri ikki bo‘ladi, boshqalarga yaxshilik

qilganning oʻzi ham yaxshilik koʻradi.

Zabur 111:5, Hikmatlar 22:9, 2 Korinfliklar 8:1-4, 1 Timoʻtiy 6:17-19

Takabburlik va magʻrurlik haqida

Hikmatlar 16:18

Magʻrurlikning ortidan halokat keladi, takabburlikdan soʻng esa odam qoqiladi.

Hikmatlar 11:2, Hikmatlar 16:5, Hikmatlar 29:23, Luqo 18:9-14

Tirishqoqlik haqida

Hikmatlar 12:24

Tirishqoq hukm suradi, dangasa esa qul boʻladi.

Hikmatlar 10:4, Hikmatlar 13:4

Xasislik va ochkoʻzlik haqida

Hikmatlar 15:27

Ochkoʻz oʻz uyiga tashvish keltiradi, poradan nafratlanadigan esa yashaydi.

Hikmatlar 1:19, Hikmatlar 23:4-5, Matto 6:19-21, Luqo 12:15-21, 1 Timoʻtiy 6:7-10

Xudojoʻylik haqida

1 Timoʻtiy 4:8-9

Axir, shunday bir maqol bor–ku: “Jismoniy mashq tana uchun foyda berar, xudojoʻylik esa har tomonlama foyda keltirar, u dunyoyu bu dunyoda hayot baxsh etar.” Bu gap toʻgʻri va asoslidir, u har jihatdan qabul qilinishga loyiqdir.

1 Timoʻtiy 6:3-6, 11, 2 Timoʻtiy 3:1-5

Oʻzini tuta bilish haqida

Hikmatlar 25:28

Oʻzini tuta olmaydigan odam devorsiz vayrona shahar kabidir.

Hikmatlar 16:32, Yoqub 1:19, Titus 2:2-5

Oʻgʻrilik haqida

Hikmatlar 13:11

Hiyla bilan topilgan davlat yoʻqoladi, mehnat bilan topilgani esa koʻpayadi.

Hikmatlar 20:10, Efesliklar 4:28, Titus 2:9-10

Qanoat qilib yashash haqida

Ibroniylar 13:5

Pulga ko‘ngil bog‘lamanglar, bori bilan qanoatlaninglar. Zero, Xudo: “Sizlarni tashlab ketmayman, sizlarni tark etmayman”, — deb aytgan.

Luqo 3:14, Filippiliklar 4:11-12, 1 Timo‘tiy 6:7-10

Hasad haqida

Hikmatlar 14:30

Xotirjam yurak tanaga hayot baxsh etadi, hasadgo‘ylik esa suyaklarni chiritadi.

Yoqub 3:13-16, 1 Butrus 2:1, Rimliklar 13:13, Titus 3:3-5

Haqqoniylik haqida

Hikmatlar 24:26

To‘g‘ri javob beradiganlarni hamma sevadi.

Hikmatlar 12:17-19, Hikmatlar 16:11, 1 Butrus 3:10-12

MUNOSABATLAR TO‘G‘RISIDAGI OYATLAR

Ajrashish haqida

1 Korinfliklar 7:10-11

Quyidagi amr esa uylangan va erga tekkanlarga berilgan. U mendan emas, Rabbimiz Isodandir: xotin eri bilan ajrashmasin. Ajrashgan bo‘lsa, boshqa erga tegmasin yoki o‘z eri bilan yarashsin. Er ham o‘z xotini bilan ajrashmasin.

Matto 5:27-32, Matto 19:3-9, 1 Korinfliklar 7:10-16

Boshqalarga xizmat qilish haqida

1 Butrus 4:10

Xudo sizlarga bergan in’omlar bilan bir–biringizga xizmat qilinglar. Xudoning bu boy ehsonlaridan oqilona foydalaninglar.

Matto 20:20-25, Matto 25:31-46, Galatiyaliklar 5:13-15, Filippiliklar 2:3-4, Ibroniylar 13:1-3

Boshqalarni kechirish haqida

Matto 6:14-15

Agar sizlarga yomonlik qilganlarni kechirsangizlar, osmondagi Otangiz ham sizni kechiradi. Bordi–yu, sizlar boshqalarning gunohlarini kechirmasangizlar, Otangiz ham sizni kechirmaydi.

Hikmatlar 19:11, Matto 18:21-35, Mark 11:25-26, Kolosaliklar 3:13

Boshqalarni hukm qilish haqida

Rimliklar 2:1

Ey boshqalarni hukm qilayotgan inson! Sen kim bo‘lishingdan qat’i nazar, boshqalarni hukm qilishga hech haqing yo‘q. Sen boshqa odamni hukm qilib, o‘zingni ham mahkum etasan. Axir, o‘zing ham shu ishlarni qilyapsan–ku!

Matto 7:1-5, Yoqub 4:11-12, Rimliklar 14:10-13

Dushmanlarga munosabat haqida

Hikmatlar 24:17-18

Dushmaning yiqilganda sevinma, qoqilgani uchun yuraging quvonmasin. Bo‘lmasa Egamiz buni ko‘rib yoqtirmay, g‘azabini undan o‘giradi.

Matto 5:44-48, Rimliklar 12:17-21

Do‘stlik haqida

Hikmatlar 18:24

Shunday do‘st borki, u halokat keltiradi, do‘st borki, u tug‘ishgandan ham yaqinroqdir.

Hikmatlar 17:9, 17, Hikmatlar 27:6

Jahl va g‘azab haqida

Efesliklar 4:26-27

Hatto g‘azablanganingizda ham gunoh qilmanglar. Quyosh botguncha jahldan tushinglar. Iblisga fursat bermanglar.

Hikmatlar 14:29, Hikmatlar 19:11, Yoqub 1:19-20, Efesliklar 4:31-32

Zino haqida

Ibroniylar 13:4

Nikohni hammangiz e’zozlanglar. Er–xotinlik munosabatini beg‘ubor saqlanglar. Fahshu zinoga berilganlarni Xudo hukm qiladi.

Hikmatlar 5:20-21, Hikmatlar 6:20-35, Matto 5:27-32, Mark 10:10-12

Masihiy birodarlarga munosabat haqida

Ibroniylar 13:1

Bir–biringizni birodarlarday yaxshi ko‘rishni davom ettiringlar.

Matto 5:23-24, 3 Yuhanno 1:5-8, Rimliklar 14:1, 19, Rimliklar 16:17, 1 Korinfliklar 1:10

Masihiylarning yakdilligi haqida

Rimliklar 12:4-5

Axir, tanamiz bir bo‘lsa–da, tanamiz a’zolari ko‘p, tanamiz a’zolarining vazifasi ham bir xil emas. Shunga o‘xshab, biz — Masihga tegishli bo‘lganlar bir tanani tashkil qilamiz. Har birimiz har xil a’zolar bo‘lib, bir–birimizga bog‘liqmiz.

Havoriylar 2:44-46, Efesliklar 4:3-6, Filippiliklar 2:1-4, Ibroniylar 10:24-25

Mehr–muhabbat ko‘rsatish haqida

Yuhanno 15:12-13

Mening amrim shu: Men sizlarni qanday sevgan bo‘lsam, sizlar ham bir–biringizni shunday sevinglar. Kim o‘z jonini do‘stlari uchun fido qilsa, bundan ortiq sevgi yo‘q.

Rimliklar 12:9-10, Rimliklar 13:8, 1 Korinfliklar 13:1-13, Ibroniylar 10:24

Mehr–shafqat ko‘rsatish haqida

Luqo 6:36

Osmondagi Otangiz rahmdil bo‘lgani kabi, sizlar ham rahmdil bo‘linglar.

Matto 5:7, Yoqub 3:17, Efesliklar 4:32

Musofir va muhtojlarga munosabat haqida

Zabur 145:9

Egamiz musofirlarni asraydi, Yetim va bevalarni qo‘llaydi, Fosiqning yo‘llariga xalaqit beradi.

Matto 25:34-36, 1 Butrus 2:11-12

Nikoh haqida

Kolosaliklar 3:18-19

Ey xotinlar, eringizga itoatli bo‘linglar. Shunday qilish Rabbimiz Isoning izdoshlariga munosibdir. Ey erlar, xotiningizni sevinglar, ularga qo‘pol muomalada bo‘lmanglar.

Hikmatlar 31:10-31, 1 Butrus 3:1-7, 1 Korinfliklar 7:1-16, Efesliklar 5:21-33

Ota–onalaru farzandlar munosabati haqida

Hikmatlar 23:22, 24

Seni dunyoga keltirgan otangga quloq sol, onang qariganda uni xor qilma….Solih otasining boshini ko‘kka yetkazadi, dono farzand uni xursand qiladi.

Hikmatlar 19:13, 26, Hikmatlar 20:20, Matto 15:4-6, Efesliklar 6:1-4

Tilni jilovlash haqida

Efesliklar 4:29

Og‘zingizdan hech qanday yaramas so‘z chiqmasin. Lekin tinglovchilarning ehtiyojiga ko‘ra, kerakli gaplarni aytib, ularga dalda bering, shunda so‘zlaringiz ularga foyda keltiradi.

Hikmatlar 10:19, Hikmatlar 21:23, Matto 12:33-37, Yoqub 1:26, Yoqub 3:1-12

Xafagarchilik haqida

Kolosaliklar 3:13

Bir–biringizga nisbatan sabr–toqatli bo‘linglar. Orangizda xafagarchilik o‘tgan bo‘lsa, bir–biringizni kechiringlar. Egamiz sizlarni kechirgani kabi, sizlar ham boshqalarni kechiringlar.

Matto 5:23-24, 1 Butrus 4:8

Qasos olish haqida

1 Butrus 3:9

Yomonlikka yomonlik, haqoratga haqorat bilan javob qaytarmanglar, aksincha, hammani duo qilinglar. Zero, Xudo sizlarni shunga da’vat etgan. Bularga rioya qilsangiz, baraka topasizlar.

Hikmatlar 20:22, 1 Butrus 2:21-23, Rimliklar 12:17-21

G‘iybat haqida

Hikmatlar 16:28

Makkor janjal chiqaradi, g‘iybatchi esa yaqin do‘stlarni ajratadi.

Zabur 100:5, Hikmatlar 10:18, 1 Butrus 2:1

Haqiqatni aytish haqida

Efesliklar 4:15

Kelinglar, mehr–muhabbat bilan haqiqatni aytib, jamoatning boshi bo‘lgan Masihga o‘xshab har jihatdan yetuk insonlar bo‘laylik.

Hikmatlar 24:26, 28, Hikmatlar 26:28, Efesliklar 4:25

HAYOTDA UCHRAYDIGAN VAZIYATLARDA YORDAM BERADIGAN OYATLAR

Adolat va haqiqatga intilganda

Matto 5:6

Adolatga tashna bo‘lganlar baxtlidir, Chunki Xudo ularni qondiradi.

Zabur 24:5, Zabur 32:5, Zabur 81:3, Hikmatlar 2:7-9, Hikmatlar 21:3

Aybini his qilganda

Hikmatlar 28:13

O‘z gunohlarini yashirgan yutuqqa erishmaydi, ularni tan olib, voz kechgan marhamat topadi.

Zabur 31:5, Zabur 50:3-19, 1 Yuhanno 1:8-9, 2 Korinfliklar 7:10

Boylik haqida

Hikmatlar 11:4

Qiyomat kunida boylik foyda bermaydi, solihlik esa o‘limdan saqlaydi.

Zabur 48:17-18, Hikmatlar 11:28, Hikmatlar 22:1, 16, Hikmatlar 23:4-5, Hikmatlar 28:6, Matto 6:24, Matto 19:16-30, Luqo 12:15-21, Luqo 16:9-13, 1 Timo‘tiy 6:7-10, 17-19

Vasvasa va sinovlardan o‘tganda

1 Korinfliklar 10:13

Sizlar tushgan vasvasaga boshqalar ham duchor bo‘lgan. Ammo Xudo sodiqdir, U kuchingizdan ortiq vasvasaga tushishingizga yo‘l qo‘ymaydi. Vasvasaga bardosh bera olishingiz uchun kerakli paytda vasvasadan qutulish yo‘lini ham beradi.

Matto 4:1-11, Yoqub 1:12-15, Yoqub 4:7, 1 Yuhanno 2:15-17

Donolik kerak bo‘lganda

Zabur 110:10

Egamizdan qo‘rqish donolikning boshidir, Bunday yo‘l tutganlarning aqli rasodir, Uning hamdu sanolari to abad davom etadi.

Hikmatlar 2:1-6, Hikmatlar 9:9-12, Hikmatlar 16:16, Yoqub 1:5, Yoqub 3:13-18

Yolg‘izlikni his qilganda

Zabur 144:18

Egamiz O‘ziga yolvorganlarning yonidadir, Chin dildan iltijo qilganlarning yonidadir.

Zabur 22:1-6, Zabur 24:16-18, Zabur 26:10, Zabur 67:7

Yomon odatlarni tashlamoqchi bo‘lganda

Filippiliklar 4:13

Menga kuch–quvvat beradigan Iso Masihning madadi bilan har narsani qila olaman.

Galatiyaliklar 5:16, 22-23, Efesliklar 4:22-24

Imon sust bo‘lganda

Ibroniylar 10:23

Endi o‘zimiz e’tirof etgan umidimizni ikkilanmay mahkam tutaylik. Chunki va’da bergan Xudo O‘z so‘ziga sodiqdir.

Matto 8:23-27, Matto 14:25-31, Mark 9:21-24, Luqo 22:31-32, Yuhanno 14:27, 2 Timo‘tiy 2:11-13, Ibroniylar 11:1-2, 6, Ibroniylar 12:2

Ish yaxshi yurishganda

Zabur 106:8-9

Sodiq sevgisi uchun ular Egamizga shukrona aytsin! Egamizning insoniyatga ko‘rsatgan ajoyib ishlari uchun shukur qilsin! Zotan, U qondirar tashna bo‘lganlarni, To‘ydirar ne’matlar bilan ochlarni.

Zabur 83:12, Zabur 102:1-5, 1 Salonikaliklar 5:16-18

Ishingiz haqida o‘ylayotganingizda

Efesliklar 6:7-8

Insonlarga emas, balki Rabbimiz Isoga xizmat qilayotgandek, bajonu dil xizmat qilinglar. Esingizda tuting: xoh qul, xoh erkin bo‘lsin, har bir kishi qilgan yaxshiligiga yarasha mukofotni Rabbimizdan oladi.

Hikmatlar 3:3-4, Efesliklar 4:28, Efesliklar 6:5-9

Kasallikka duchor bo‘lganda

Zabur 102:2-3

Egamizni olqishlagin, ey jonim, Uning qilgan hamma yaxshiliklarini unutmagin! Hamma gunohlarimni U kechiradi, Barcha xastaliklarimga U shifo beradi.

Mark 1:40-41, Yoqub 5:14-15, 2 Korinfliklar 4:16-18

Kelajakka umid kerak bo‘lganda

Hikmatlar 23:18

Chunki albatta kelajak bor, umiding ro‘yobga chiqadi.

Zabur 26:1, Zabur 90:1-10, 1 Butrus 1:3-9, 2 Korinfliklar 1:21-22, Filippiliklar 1:6

Kulfatli damlarda

Zabur 45:2

Xudo bizning panohimiz, qudratimizdir, Kulfatda qolganimizda doim madadkorimizdir.

Zabur 17:7, Zabur 49:15, Zabur 58:17-18, Hikmatlar 31:8

Tushkunlikka tushganingizda

Zabur 42:5

Nega tushkunlikka tushasan, ey jonim? Nega behalovat bo‘lasan ichimda? Xudoga umid bog‘la! Shukur etaman Yana Unga — najotkorim, Xudoyimga.

Zabur 39:2-5, Zabur 54:23, Zabur 60:2-4, Rimliklar 8:36-39

Umidsiz bo‘lganda

Zabur 33:18-19

Taqvodorlar yolvoradi, Egamiz eshitadi, Barcha balolardan ularni Egamiz qutqaradi. Ko‘ngli cho‘kkanlarga Egamiz yaqindir, Ruhan ezilganlarni U qutqaradi.

Zabur 22:1-4, Zabur 41:2-6

Xavotir olganda

Zabur 93:18-19

“Oyoqlarim qoqiladi”, deb o‘ylaganimda, Ey Egam, sodiq sevging meni qo‘lladi. Ichim xavotirga to‘lib ketganda, Sen bergan tasalli menga quvonch keltirdi.

Zabur 22:4, Zabur 54:23, Luqo 12:22-31, 1 Butrus 5:6-7

Xavfga duchor bo‘lganda

Zabur 26:1

Egam nurim va najotimdir, Kimdan qo‘rqaman?! Egam hayotimning qal’asidir, Kim meni qo‘rqita olar?!

Zabur 90:1-6, Zabur 117:5-9, Rimliklar 8:35-39

Shodlik, quvonchga to‘la damlarda

Zabur 94:1

Kelinglar, sevinch ila Egamizni kuylaylik, Najotimiz Qoyasiga shodlik ila hayqiraylik.

Zabur 31:11, Zabur 70:14-16, Efesliklar 5:19-20

Yupanch va dalda kerak bo‘lganda

Zabur 93:18-19

“Oyoqlarim qoqiladi”, deb o‘ylaganimda, Ey Egam, sodiq sevging meni qo‘lladi. Ichim xavotirga to‘lib ketganda, Sen bergan tasalli menga quvonch keltirdi.

Zabur 22:1-4, Matto 5:4, 2 Korinfliklar 1:3-5, Vahiy 21:3-4

Yurak notinch bo‘lganda

Yuhanno 14:27

Men sizlarga tinchlikni qoldiryapman. O‘z tinchligimni sizlarga beryapman. Men berayotgan tinchlik dunyo beradigan tinchlikka o‘xshamaydi. Yuragingiz siqilmasin, qo‘rqmanglar.

Zabur 45:2-4, Zabur 54:23, Matto 6:25-34, Filippiliklar 4:6-7

O‘zingizni ojiz, kuchsiz his qilganingizda

Zabur 9:35

Sen esa ko‘rib turasan, Bilib turasan kulfatu azobda qolganlarni. Qo‘llaringni ularga uzatasan, Ojiz o‘zini Sening panohingga topshiradi, Sen yetimga doim yordam bergansan.

Rimliklar 8:26-27, 2 Korinfliklar 4:7, 2 Korinfliklar 12:9-10, Filippiliklar 4:13, Ibroniylar 4:14-16

Qayg‘urganda

Vahiy 21:4

Xudo ularning ko‘zidagi har bir tomchi yoshni artib qo‘yadi. Endi o‘lim mavjud bo‘lmaydi, Hech kim qayg‘urmaydi, yig‘lamaydi, azob chekmaydi. Zero, avvalgilar o‘tib ketdi.

Zabur 29:6, Zabur 55:9, Zabur 141:2-3, 1 Salonikaliklar 4:13-14

Qaror chiqarayotganda

Hikmatlar 12:15

Nodon o‘z yo‘lini to‘g‘ri deb o‘ylaydi, dono esa maslahatga quloq soladi.

Zabur 24:4-10, Zabur 118:105, Rimliklar 12:1-2

Qiyinchilik, azob–uqubatga yo‘liqqanda

Zabur 33:19

Ko‘ngli cho‘kkanlarga Egamiz yaqindir, Ruhan ezilganlarni U qutqaradi.

Matto 11:28, Luqo 22:41-44, Yoqub 1:2-4, Rimliklar 12:12, 2 Korinfliklar 12:9-10

MASIHIYLAR JAMOATINING O‘RTA OSIYODAGI QADIMIY TARIXI

Yangi Ahdning Havoriylar faoliyati kitobida Iso Masih haqidagi Xushxabar qay tarzda Rim imperiyasi, ya’ni g‘arb tomonga yoyilgani bayon etilgan. Keyinroq yozilgan tarixiy qo‘lyozmalar va arxeologik topilmalardan ma’lum bo‘lishicha, Iso Masih haqidagi Xushxabar sharq tomonga, ya’ni Persiyaga — avval Parfiyaga, keyinroq esa Sosoniylar imperiyasiga ham yetib borgan. Qadimiy manbalardan ma’lumki, taxminan milodiy 200 yillar atrofida, Baqtriyaning[1] Kushon imperiyasida masihiylar mavjud bo‘lgan. Beshinchi asrning boshlariga kelib, Hirot[2] va Marv[3] shaharlarida xizmat qilish uchun masihiy yetakchilar tayinlangan. Milodiy 424 yilda Fors poytaxti Selevkiya–Ktesifonda[4] “Sharq jamoati” rasmiy e’tirof etilgan.

Vaqtlar o‘tib, O‘rta Osiyo aholisi orasida Masihga imon keltirgan odamlar soni ko‘paydi. Bu hududdagi masihiylar Xudoga suriyoniy tili va mahalliy tillarda sajda qilardilar. Bu mahalliy tillar fors, sug‘d va qadimiy turk tillari edi. Masihiylarning soni Amudaryoning shimol tomonida ham ko‘payib, masihiylar jamoati yoyila boshladi. Shunday qilib, VI asrning oxirlari va VII asrning boshlarida Samarqand asosiy ruhiy-ma’naviy markaz bo‘lib qoldi. Hikoya qilishlaricha, mana shu davrlarda qadimiy turkiy aholi[5] peshonasiga xochning rasmini zarb qilib, chizdirib olganlar. Ularning tushunchasi bo‘yicha xoch tasviri ularni vabodan asrar ekan. Taxminan 644 yili turk hukmdorlaridan biri va uning lashkarlari bir daryo qirg‘og‘ida Masihga imon keltirganlar. Olimlar o‘sha daryoni Amudaryo deb taxmin qilishadi.

Suriyoniy, fors va sug‘d tilida gaplashadigan O‘rta Osiyo masihiylari Iso Masih haqidagi xushxabarni yoyishni davom ettirdilar. Aq–beshim[6] va Urgutda[7] masihiylar ibodatxonalari topilgan. Arxeologlar Muqaddas Kitobdagi hikoyalarning mazmuniga rasmi ishlangan kumush laganlar va Buxorodan chiqqan xoch zarbi bor tangalar ham topishgan. Arxeologik topilmalar ko‘rsatadiki, sug‘d tilida gapiradigan masihiylar hozirgi O‘zbekiston va Tojikiston hududidan sharq tomonga, hatto Xitoyga ham Iso Masih haqidagi xushxabarni yoyganlar. Turfonda[8] 500 dan ortiq sug‘d tilidagi masihiycha qo‘lyozma parchalari topilgan.

VII asrning oxirlarida O‘rta Osiyo arablar tomonidan bosib olingandan keyin masihiylarning faoliyatiga cheklovlar qo‘yish boshlandi. Vaqtlar o‘tib, masihiylar ibodatxonalarining ba’zilari masjidga aylantirildi. Bunga Buxorodagi bir masjid namunadir. Bularga qaramay, O‘rta Osiyo masihiylari Xudoga sajda qilish uchun yig‘ilishda davom etaverdilar. Ular butun O‘rta Osiyo hududiga Iso Masih haqidagi xushxabarni yoyishni to‘xtatmadilar. Bularning biri Balxlik[9] bo‘lib, masihiylarga rahnamo bo‘lgan Yazdibozid degan kishidir. U Xitoy hududi bo‘ylab yurib, odamlarga Iso Masih haqida ta’lim bergan.

---

[1] Hozirgi Afg‘oniston hududida joylashgan edi.
[2] Hozirgi Afg‘oniston hududida joylashgan.
[3] Hozirgi Turkmanistonning Mari shahriga yaqin joylashgan edi.
[4] Bu ikki birlashgan shaharlar hozirgi Iroqda joylashgan edi.
[5] Ular ko‘kturklar bo‘lgan bo‘lsa kerak.
[6] Hozirgi Qirg‘iziston hududida joylashgan edi.
[7] Hozirgi O‘zbekiston hududida joylashgan.
[8] Hozirgi Xitoyning Shinjon viloyatida joylashgan.
[9] Hozirgi Afg‘oniston hududida joylashgan.

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2020, 2022, 2023, 2025
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

Taxminan VIII asrning oxirlarida Sharq jamoatining yo‘lboshchisi tomonidan yozilgan ikkita maktubda shunday deyilgan: “turklarning shohi” va o‘sha shohlikning aksariyat aholisi Iso Masihga ishonib, Uning yo‘lidan yura boshladi. Shuningdek, ushbu maktublarda o‘sha shoh o‘z xalqi uchun bir masihiy yetakchi tayinlashni so‘raganligi haqida ham yozilgan. Bu turklar qarluqlar bo‘lsa kerak, deb taxmin qilinadi. Qarluqlarning poytaxti Tarozda[10] edi. Milodiy 893 yilda qarluqlar Buxoro somoniylari tomonidan bosib olinganlar. Qarluq masihiylarining katta ibodatxonasi ham masjidga aylantirilgan. O‘sha davrdan qolgan tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, Samarqanddagi masihiylar ibodatxonasining darvozalari dunyodagi eng go‘zal ijod namunasi hisoblangan.

Taxminan milodiy 1000 yilda mashhur olim Beruniy Xorazmda masihiylar nishonlagan bayramlar haqida yozgan. O‘sha davrning ikki tarixchisi 200 mingta kerayit turklari Mongoliyada 1007 yilda Iso Masihga imon keltirib, Uning yo‘lidan yura boshlaganini aytib o‘tishgan. Ularning yozishicha, kerayit turklarining shohi qattiq bo‘ron paytida tog‘da yo‘lini topolmay qolgan. Masihiy bir ulug‘ zot shohga vahiyda ko‘rinib, uni qarorgohiga qaytarib olib borgan. Shoh qarorgohga eson–omon qaytib borgandan keyin, o‘sha yerda masihiy savdogarlar bilan ularning imoni haqida suhbatlashgan. Shundan keyin shoh bir qurbongoh o‘rnatib, uning oldiga to‘rt Xushxabarning nusxasini va bir mesh biya suti qo‘ygan. Mana shu qurbongoh oldida kerayit turklari ibodat qilganlar va, biz Iso Masih ta’limotiga sadoqat bilan amal qilamiz, deb qasamyod qilganlar va shu ontning ramzi sifatida o‘sha sutdan ichganlar.

XIV asrga kelib, Qashg‘ar va Almalik[11] shaharlarida xizmat qilishlari uchun masihiy yetakchilar tayinlangan. Sharq jamoati masihiylarining e’tiqodi haqida arxeologik dalillar mavjud. Bu dalillarning aksariyati Turfon va Dunxuandan[12] topilgan suryoniy, sug‘d, fors va o‘rta turk[13] tillaridagi 1100 ta qo‘lyozma parchalaridan iboratdir. Bu qo‘lyozmalar IX asrdan XIV asrgacha bo‘lgan davrlarda yozilgan. Ularning orasida Muqaddas Kitobdan, asosan Zabur, Xushxabarlar va havoriylarning maktublaridan parchalar bor. Shular qatorida, masihiylar sajda qilganda foydalangan matnlar, qo‘shiqlar, masihiylarning e’tiqodiga oid bo‘lgan bayonotlar, ibodat kitobchalari, buyuk masihiylar haqidagi hikoyalar, va’zlar, maktublar va to‘ylarda ishlatilgan nutqlar topilgan.

Va nihoyat, To‘qmoq va Bishkekka yaqin joylarda, hamda Almalikda taxminan XIII-XIV asrlardan qolgan 600 tacha masihiycha qabrtoshlar topilgan. Bu qabrtoshlardagi matnlar suryoniy va o‘rta turk tillarida yozilgan. Qabrtoshlarning aksariyati turklarning qabri ustiga qo‘yilgan bo‘lib, xotirlanganlarning ko‘pchiligi Sharq jamoatining yetakchilari edilar. Hozirgi paytda bu qabrtoshlar Rossiyaning Sankt-Peterburgdagi va O‘rta Osiyoning Toshkent, Ashxobod, Dushanbe, To‘qmoq va Bishkek shaharlaridagi muzeylarda saqlanib kelmoqda.

Amir Temur va uning avlodi taxtga o‘tirgan davrlarga kelib, O‘rta Osiyoda masihiylar soni juda kamayib ketgan edi. Ba’zi qo‘lyozmalarning bayon qilishicha, bu paytda masihiylar Samarqand va Turfonda yashagan. 1200 yil davomida, O‘rta Osiyoda mavjud bo‘lgan Sharq jamoati qachon va qanday qilib g‘oyib bo‘lgani aniq emas. Mana shu davrdan keyingi arxeologik topilmalarda O‘rta Osiyo masihiylari haqida ma’lumot qayd etilmay qo‘yilgan bo‘lsa–da, xalq o‘z farzandlariga bergan ismlaru ularning avloddan

[10] Hozirgi Qozog‘iston hududida joylashgan.
[11] Bu ikki shahar hozirgi Xitoyning Shinjon viloyatida joylashgan.
[12] Hozirgi Xitoy hududida joylashgan.
[13] Aynan qoraxoniy turklarining shevasi nazarda tutilgan bo‘lsa kerak.

avlodga o‘tib kelgan hikoyalari va udumlarida Sharq jamoatining ta’siri yaqqol sezilib turadi. Asrlar osha masihiylarning ibodatxonalari va yozuvlari yo‘qolib ketgan bo‘lsa ham, qadimda Iso Masihning yo‘lidan yurgan bu masihiylar unutilmagan. O‘rta Osiyo xalqlari endi payg‘ambarlar hamda Iso Masihning ta’limotlarini o‘z ona tilida o‘qish orqali o‘zlarining ruhiy–ma’naviy boyligini qaytadan o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.